O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI

ALISHER NAVOIY ENSIKLOPEDIYASI

I JILD

(A–H)

TOSHKENT – 2024

TAHRIR HAY'ATI
Bahrom ABDUHALIMOV, Nizomiddin MAHMUDOV,
Shuhrat SIROJIDDINOV, Sirojiddin SAYYID, Jabbor ESHONQULOV,
Olim DAVLATOV, Nodir JONUZOQ, Isajon SULTON

ILMIY-IJODIY GURUH
Abduqodir HAYITMETOV, Ibrohim HAQQUL, Maqsud ASADOV,
Qodirjon ERGASHEV, Sayfiddin RAFIDDINOV, Ergash OCHILOV,
Burobiya RAJABOVA, Zulayho RAHMONOVA, Sirdaryoxon O'TANOVA

MAS'UL MUHARRIR
Maqsud ASADOV,
filologiya fanlari doktori, professor

NASHR UCHUN MAS'ULLAR
Elnura QURBONOVA, Shahnoza RAHMONOVA, Hamida ASHUROVA,
Dilmurod ASQAROV

TAQRIZCHILAR
Boqijon TO'XLIYEV, *filologiya fanlari doktori, professor*
Nurboy JABBOROV, *filologiya fanlari doktori, professor*

MUNDARIJA

MUQADDIMA 5

A 9

B 206

D 295

E 340

F 353

G 411

H 428

Qisqartmalar ro‘yxati 527

“Alisher Navoiy ensiklopediyasi” mualliflar ro‘yxati 528

Резюме (рус.) 531

Summary (ingl.) 533

UO‘K 821.512.133-1
KBK 84(5O‘)-5
M 30

Alisher Navoiy ensiklopediyasi: Toshkent – O‘zbekiston nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2024. – 536b.

Ko‘p jildli “Alisher Navoiy ensiklopediyasi” buyuk shoir va mutafakkir, yirik davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiy mansub bo‘lgan XV asrning II yarmi Xuroson va Movarounnahrdagi tarixiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy va adabiy hayot, ulug‘ shoirning tarjimayi holi, faoliyati, yaqinlari, do‘stlari, ijodiyotining ma’naviy sarchashmalari, salaflari, adabiy merosi va uning jahonshumul ahamiyati, qolaversa, mumtoz adabiyotimiz tarixida tutgan beqiyos o‘rni xususida atroflicha ma’lumotlarni qamrab olgan yirik qomusdir. Ensiklopediyadan navoiyshunoslik masalalari, buyuk shoir asarlarining turli yillardagi nashrlari, xorijiy tillarga tarjimalari, yurtimiz va jahon kutubxonalari xazinalarida saqlanayotgan qo‘lyozma hamda toshbosma kitoblari, shuningdek, rassomchilik, haykaltaroshlik, teatr, kino singari san’at turlarida Alisher Navoiy siymosining aks ettirilishiga doir maqolalar ham o‘rin olgan. Turli she’riy janrlarga oid asarlarining sharh va tahlillaridan ayrim namunalar keltirilgan. Jumladan, kitobning mazkur 1-jildiga 620 ta maqola kiritilgan bo‘lib, ular mavzu xilma-xilligi, ko‘pgina ma’lumot va dalillarning yangiligi, aniqligi va qiziqarliligi bilan o‘ziga xosdir.

“Alisher Navoiy ensiklopediyasi” navoiyshunos olimlar, mumtoz adabiyot bilan shug‘ullanuvchi tadqiqotchilar, oliy ta’lim muassasalarining o‘zbek filologiyasi yo‘nalishi professor-o‘qituvchilari, talabalari, o‘rta maktablarning adabiyot muallimlari, umuman, Alisher Navoiy hayoti va ijodiyotiga qiziquvchi keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-oktyabrdagi “Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi PQ-4865-son qaroriga asosan Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbek tilini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan chop etildi.

ISBN 978-9910-9559-3-8

© “O‘zbekiston” nashriyoti, 2024

“O‘zining bebaho asarlari bilan ona tilimizning qadrini va qaddini tiklagan buyuk mutafakkir ajdodimiz Alisher Navoiy hayoti va ijodining mukammal ensiklopediyasini yaratish ham oldimizda turgan dolzarb vazifalardan biridir”.

Shavkat Mirziyoyev,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

MUQADDIMA

Bugun O‘zbekiston nafaqat siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy sohalarda, balki ilmiy jabhada ham ulkan zafarlar sari dadil qadam tashladi. Jonajon Vatanimizda Uchinchi Renessans poydevoriga mustahkam tamal toshi qo‘yilayotgan hozirgi kunlarda, ayniqsa, fundamental tadqiqotlar, ensiklopediyalar yaratish, o‘zbek ilm-fani qo‘lga kiritgan muvaffaqiyatlarni keng jamoatchilikka ma’lum qilish har qachongidan-da muhim ahamiyatga ega. Shu ma’noda, to‘rt jilddan iborat “Alisher Navoiy ensiklopediyasi”ning chop etilishi Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ijtimoiy-gumanitar fanlar, xususan, millatimiz o‘tmishi va kelajagi uchun ma’naviy ko‘prik bo‘la olgan ulug‘ ajdodlarimiz ijodiy merosini o‘rganish bilan bog‘liq vazifalarga ham alohida e’tibor qaratilayotganining amaliy natijasidir.

Buyuk shoir va mutafakkir, ulkan adib va olim, atoqli davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiy – dunyoga tanilib, Yer yuzidagi o‘nlab xalqlarning diqqat-e’tiborini o‘ziga jalb eta olgan beqiyos iste’dod sohibi. Uning ijodiy merosi nafaqat xalqimiz milliy madaniyati, balki jahon badiiy tafakkuri tarixida alohida mavqega ega. She’riyat mulkining sultoni sifatida Navoiy dunyodagi millionlab o‘quvchilarning qalbini zabt etdi. Daho shoir:

Turk nazmida chu men tortib alam,
Ayladim ul mamlakatni yakqalam.

deganida mutlaqo haqli edi va tarix bu so‘zlarning to‘g‘riligini asrlar o‘tsa hamki, hamon isbotlab kelmoqda.

Ma’lumki, XX asr insoniyat tarixidagi eng murakkab va ziddiyatli asr bo‘ldi. Bu yuz yillik turli millat va elatlarni misli ko‘rilmagan qiyinchilik, kulfat, qullik va qaramlik, ayriliq va yo‘qotishlarga duchor etdi. Qanchadan-qancha yurtlar va ellar asriy nufuzidan ayrilib, o‘z qadriyatlaridan yiroqlashdi, milliy hurligini boy berdi. Ushbu fikr, ma’lum bir ma’noda, jafokash, lekin ma’nan va ruhan yengilmas o‘zbek xalqiga ham tegishli. Ammo erk-u ixtiyori qanchalik cheklanib, fikr-u zakovati nechog‘li ayovsiz ta’qibga uchramasin, xalqimiz hech qachon jasur, mard va matonatli, ilm-u ma’rifati, ijodkorligi bilan Sharq-u G‘arbga tanilgan farzandlarini sira ham unutgan emas. Ularning ma’naviy qudrati, so‘nmas xotirasi, nekbin ruhidan quvvat olib, ertangi yorug‘ kunlarga umidvorlik hissi bilan yashadi. Alisher Navoiyga bo‘lgan mehr-muhabbat, ishonch va e’tiqod buning yorqin dalilidir.

XX asr boshlaridanoq yurtimizda kechgan ta’lim-tarbiya, ilm-ma’rifat, madaniyat, adabiy ijod va san’at jarayonlarini Alisher Navoiyning serqirra ijodiyotisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Hamma davrlarda

ham Navoiy jonajon xalqiga, albatta, imkon qadar hamkor-u hamnafas bo‘lgan. Adabiyotimizning ustoz Oybekday faol va fidoyi vakillari buni she’riy, nasriy va ilmiy asarlarida ko‘rsatib, isbotlab berishgan. O‘zbekistonda navoiyshunoslik nomli mustaqil fan tarmog‘i yuzaga kelgan. Sadriddin Ayniy, Olim Sharofiddinov, Abdurauf Fitrat, Oybek, Maqsud Shayxzoda, Vohid Abdullayev, Abduqodir Hayitmetov, Suyima G‘aniyeva, Alibek Rustamov, Azizxon Qayumov kabi yetuk navoiyshunoslar ana shu davrda kamol topdi. Porso Shamsiyev, Hamid Sulaymonov singari jonkuyar matnshunoslar yetishib chiqdi.

To‘g‘ri, adabiyotshunoslikning boshqa tarmoqlaridagidek, navoiyshunoslikda ham har turli xato, nuqson va cheklanishlarga yo‘l qo‘yilganidan ko‘z yumib bo‘lmaydi. Ammo mutafakkir san’atkor asarlarini keng ommaga yetkazish, targ‘ib va tashviq etish, imkon darajasida ularni to‘g‘ri tadqiq-u talqin qilish, ayniqsa, yoshlarda Navoiy shaxsi va ijodiyotiga mehr uyg‘otishda ibratga loyiq ishlar qilinganini ham ta’kidlash lozim.

Hurmatli o‘quvchi! 2016-yildan keyingi ijtimoiy, siyosiy, madaniy va ma’naviy hayotdagi yangilanish va erkinlik navoiyshunoslikka ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgani asl haqiqat. Faoliyatining dastlabki kunlaridanoq davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev butun xalqni Navoiy ijodiyotini yangi ma’naviy ehtiyoj va maqsad bilan o‘qib-o‘rganishga rag‘batlantirdi. Prezidentimizning ko‘rsatmasi va tashabbusi bilan “Alisher Navoiy ensiklopediyasi” xalqqa to‘rt jildda yetkaziladigan bo‘ldi.

Navoiy hayoti va ijodini o‘rganish asrlardan asrlarga, nasllardan nasllarga o‘tib kelayotgan bo‘lsada, o‘rtada bir bo‘shliq yoki uzilish bo‘lmagan. Shoir hayotligidayoq Mirxond, Xondamir, Davlatshoh Samarqandiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Zayniddin Vosifiy kabi olim-u adiblar tomonidan boshlangan bu xayrli ish o‘ziga xos izchillikda hali-hanuz davom etmoqda. Mazkur ensiklopediyada ham bu o‘z aksini topgan. Har bir o‘quvchi Navoiyning oilasi, qarindosh-urug‘i, do‘stlari, musohiblari, ustoz va shogirdlari, atrofidagilari bilan qiziqishi shubhasiz. Ushbu ensiklopediyada bular haqida ham ma’lumot yetarlidir.

Navoiy zullisonayn – ikki tilda ijod qilgan ulug‘ shoir, turkiyda ham, forsiyda ham u qariyb bir xil ilhom bilan qalam tebratgan. Biroq shoirning forsiy salaflari tajribalarini o‘qib-o‘zlashtirishi, ilhomlanishi bilan, turkiy tilda yaratilgan adabiy an’analarga tayanishi, albatta, sezilarli darajada farqlangan. Shuning uchun ensiklopediyada an’ana, adabiy ta’sir va o‘ziga xoslik mavzuiga atroflicha to‘xtab o‘tilgan.

Navoiy jahon so‘z san‘atining eng sermahsul, shoirlik mahorati eng yuksak ijodkoridir. Uning merosi she’riyat, nasr, ilmiy asarlardan tarkib topgan.

She’rlar “Ilk devon”, “Badoye’ ul-bidoya”, “Navodir un-nihoya”, “Xazoyin ul-maoniy” (to‘rt mustaqil devon: “G‘aroyib us-sig‘ar”, “Navodir ush-shabob”, “Badoye’ ul-vasat”, “Favoyid ul-kibar”ni o‘z ichiga olgan), “Devoni Foniy” deb atalgan devonlarda jamlangan. Shoirning xilma-xil janrlardagi lirikasi navoiyshunoslikda izchil o‘rganilgan. Buyuk san’atkor she’riy merosidan so‘z yuritilgan maqolalarga bu tadqiqotlar u yoki bu darajada asos bo‘ldi.

Navoiy – yuksak g‘oya, ezgu maqsad, go‘zal va munavvar his-tuyg‘ular ijodkori. Bu xususiyat va tamoyillar uning dunyo badiiy tafakkurining betakror namunasi va boqiy adabiy obidasi o‘laroq tan olingan besh mustaqil dostondan iborat muazzam “Xamsa”sida yanada teran, yanada mukammal shakllarda tasvirlangan. Beshlikning yozilish tarixi, g‘oyaviy-badiiy qimmati, nashrlari va ilmiy tadqiqi singari masalalar o‘quvchilarni qiziqtirishi shubhasizdir.

Navoiyning she’riyati ishq va sadoqat nuri barq urgan bir olam bo‘lsa, ma’no va haqiqat gavharlari tizilgan nasri – o‘ziga xos bir dunyo. Nasriy asarlarning har biri muallif dunyoqarashining keng va tozaligi, ko‘zlangan maqsadning yangi va jozibadorligi, til, uslub, mahoratda zo‘r yutuqqa erishilganini to‘la namoyish qiladi.

Abdurahmon Jomiy, Sayyid Hasan Ardasher, Pahlavon Muhammadga bag‘ishlangan kitoblar Navoiyning ustoz va murshidlariga munosabati, ularning ma’rifati, axloqiy xislat va fazilatlaridan ilhomlanganini kengroq tasavvur etish imkonini beradi. “Mahbub ul-qulub”dagi Navoiyning ijodiy, ma’rifiy qiyofasi, xususan, donishmandlik, axloqshunoslik salohiyati oldin yozilgan nasriy asarlardagi holatidan farqlanadi. Tiriklik va hayot bilan xayrlashar ekan, ulug‘ mutafakkir shaxs tafakkuri, taqdiri, xulq-atvori, jamiyatdagi ma’naviy mavqeyi uchun nima zarur bo‘lsa, shularning barchasini “Mahbub ul-qulub”da so‘z bilan muhrlagan. Ensiklopediyada bu masalalar ham ancha keng yoritilgan.

Navoiy – dinshunos, jamiyatshunos, tarixchi, tilshunos, adabiyotshunos, yirik tadqiqotchi.

“Vaqfiya”, “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Tarixi muluki Ajam”, “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Mezon ul-avzon”, “Siroj ul-muslimin”, “Xamsat ul-mutahayyirin”, “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”, “Holoti Pahlavon Muhammad”dan bahs yuritilgan maqolalar kitobxonni Navoiyning olimlik, allomalik iste’dodi mahsullari bilan ham yaqindan tanishtiradi.

“Nasoyim ul-muhabbat” mutasavvif Navoiyning tasavvuf mavzuida yozilgan bebaho asari bo‘lib, unda tasavvuf tarixi, taraqqiyot bosqichlari, oriflikdan ko‘zlangan asosiy muddao, u yoki bu tariqatga mansub so‘fiy, faqir yoki darveshlarning hol va maqom sirlari yoritilgan. Ulardan, xususan, yassaviylik, kubroviylik, naqshbandiylik, mavlaviylik tariqatiga mansub orif, vali, faqir, mutasavvif zotlarning mashhurlariga ensiklopediyadan alohida o‘rin ajratildi. Bunda, albatta, tasavvufning yangi davr va milliy taraqqiyotga xizmat qiladigan yorqin jihatlari inobatga olindi.

Daho shoirimiz she’riyatidan ilhomlanib usmonli turk, uyg‘ur, ozarbayjon, turkman tillarida necha yuzlab she’rlar yozilgan, qanchadan qancha nazira, tatabbu’, muxammaslar bog‘langan. O‘zbek navoiyshunosligida ulug‘ shoir dostonlarining nasriy bayonlari, turli janrlardagi lirik asarlarining izoh-u sharhlari, ilmiy tahlil va talqinlarini yaratish ham maqtovga arzirli ishlardandir.

Vatanimizda ulug‘ shoirimizning muborak nomi bilan atalgan ko‘cha, muassasa, korxona, maktab, teatr, oliy o‘quv yurtlarigina emas, butun boshli viloyat va shahar ham mavjud. Bular to‘g‘risidagi ma’lumotlar ensiklopediyaning mazmun-mohiyatini boyitgan, deb o‘ylaymiz.

Ilm-fan va adabiyoti taraqqiy etgan xalq va millatlar ulug‘ shoir asarlarini o‘z tillariga qilingan tarjimalar orqali yaxshi bilishadi va e’zozlashadi. Navoiy asarlarining jahon tillariga tarjimasiga doir fakt va ma’lumotlar ham o‘quvchilarni befarq qoldirmasligi ayon. Shuningdek, kino, teatr, musiqa, tasviriy san’at, haykaltaroshlikda Navoiy obrazining yaratilishi yuraklarni farahlantiradigan alohida e’tiborga molik hodisadir.

Navoiy hayoti, faoliyati, adabiy-ilmiy merosini keng targ‘ib va tashviq etish, ijodiy imkoniyatlarining sir-sinoatlarini o‘qib-o‘rganish, tadqiq qilish borasida qo‘lga kiritilayotgan yangi yutuqlar xususida ham ensiklopediyadagi maqolalar yetarlicha ma’lumot bera oladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning har bir o‘zbek sidqidildan Navoiyni o‘qib-o‘rganishi, dunyoning eng murakkab, millatning eng dolzarb muammolarini Navoiy ilmiy-adabiy merosiga suyanib hal qilishi; ilm-fan, madaniyat, maorif, xususan, ma’naviyat va adabiyot rivojini buyuk bobomiz asarlarisiz tasavvurga keltirmasligiga chorlashi oddiy gap emas, albatta. Prezidentimiz qarori bilan buyuk mutafakkir shoir nomida Xalqaro jamoat fondi, ijod maktabi tashkil etilishi mazkur fikrning hujjatli tasdig‘iga o‘xshaydi. Zero, Navoiyni bilish – tariximizni bilish, jonajon tilimizni e’zozlash, dinning kuch-qudratini keng mushohada qilish, millat birligi, Vatan istiqboli va hurligiga o‘zni safarbar his qilmoq deganidir.

Jahondagi har bir xalq va millat ong-u idroki o‘sib, o‘zligini anglash hissiyoti yuksala borgani sayin milliy qomus va qomusiy asarlar yaratishga ishtiyoqi ortishi allaqachon isbotini topgan.

Mustaqillikdan keyin Vatanimizda nashr qilingan ensiklopediyalar ham shundan dalolat beradi. Mamlakatimiz ilm-fani, madaniyati va adabiyoti tarixida ilk marotaba yaratilgan to‘rt jildli “Alisher Navoiy ensiklopediyasi” esa Yangi O‘zbekistonning madaniy va ilmiy hayotida muhim hodisadir. Ensiklopediyadan yetmishdan ziyod olimning ikki mingga yaqin qomusiy xarakterdagi maqolalari joy olgan. Unda tarix, din, tasavvuf, irfon, ma’naviy komillik mavzulariga ham keng o‘rin berilgani yana bir bor ta’kidlansa, ortiqchalik qilmaydi. Zero, moddiylik masalalari ruhoniyat va ma’naviylik tasarrufida bo‘lgan diyor hech vaqt fikrsiz, mahdud, muqallid kimsalardan keladigan ofatlarga befarq bo‘lmaydi. Katta maqsad, hayotiy orzu-umidlar hamisha unga keng yo‘l ochib boraveradi.

Hurmatli kitobxon!

Sizning hukmingizga havola etilayotgan to‘rt jildli “Alisher Navoiy ensiklopediyasi” ana shu oliy maqsad ma’no-mazmunini ezgu ishlarga xizmat qildiradi, deb umid etamiz.

Ensiklopediya o‘rta maktab o‘quvchilari, oliy o‘quv yurtlari talabalari, o‘qituvchilar, turli kasb va hunarga sohib ziyolilar, ilm-fan, ijod ahli va keng o‘quvchilar ommasiga mo‘ljallangan. Har qanday nashrning o‘ziga xos yutuq va muvaffaqiyatlari qatori kamchilik va nuqsonlari bo‘ladi, albatta. “Alisher Navoiy ensiklopediyasi” ham bundan to‘la istisno emas. Lekin bir jihat borki, buni inkor qilib bo‘lmaydi. Navoiyshunoslik o‘z taraqqiyot yo‘lidan dadil davom etadi. Shunday ekan, kitob qayta-qayta chop qilishga mo‘ljallangani va har nashrda xatolar tuzatilib, to‘ldirish ishlari amalga oshirilishi e’tiborga olinsa, e’tiroz-u tanqidga uncha hojat qolmasligi o‘z-o‘zidan ravshanlashadi. Faqat mutaxassislargina emas, turli sohaga mansub o‘quvchilar jamoasi ensiklopediya haqida xolis fikr bildirishlarini istaymiz. Bu esa Navoiyni elga, el-yurtni Navoiyga yaqinlashtirishga yaqindan yordam beradi, deb ishonamiz.

Ibrohim HAQQUL,
filologiya fanlari doktori, professor

Maqsud ASADOV,
filologiya fanlari doktori, professor

A

ALISHER NAVOIY – Navoiy, Foniy (taxalluslari; asl ismi Nizomiddin Mir Alisher) (1441 – 1501, Hirot), buyuk o‘zbek shoiri, mutafakkir, atoqli davlat va jamoat arbobi.

A.N.ning ota tomondan bobosi Amir Temurning Umarshayx ismli o‘g‘li b-n ko‘kaldosh (emikdosh) bo‘lib, keyinchalik Umarshayx va Shohruxning xizmatida bo‘lgan. Otasi G‘iyosiddin Bahodir esa Abulqosim Boburning yaqinlaridan; mamlakatni idora qilishda ishtirok etgan. Onasi (ismi noma’lum) Kobul amirzodalaridan Shayx Abusaid Changning qizi. N.ning bolaligi Shohrux mirzo (1377–1447) hukmronligining so‘nggi yillariga to‘g‘ri keladi. U temuriyzodalar, xususan, bo‘lajak podshoh Husayn Boyqaro b-n birgalikda tarbiyalangan. 4 yoshida maktabga borib, tez savod chiqarib, turkiy va forsiy tildagi she’rlarni o‘qib, yod ola boshlagan. Turkiy til b-n bir qatorda forsiy tilni ham mukammal egallagan. 1447-y. 12-martda mamlakat podshohi Shohrux mirzo vafot etgach, toj-taxt u-n da’vogarlar orasida o‘zaro kurash boshlanib ketadi. Urush-janjallar tufayli ko‘p kishilar Xurosondan boshqa tomonlarga ko‘chib ketishga majbur bo‘lishadi. A.N.lar oilasi ham, Iroqqa ko‘chadi (1449). Taft shahrida A.N. Amir Temur yurishlariga bag‘ishlangan mashhur “Zafarnoma” tarixiy asarining muallifi, shoir Sharafiddin Ali Yazdiy b-n uchrashadi. Bu uchrashuv yosh A.N.da yorqin taassurot qoldiradi. G‘iyosiddin Bahodir oilasi Hirotga, qariyb ikki yil muddat o‘tgach, qaytadi. Xurosonda hukmdorlik qilayotgan Abulqosim Bobur G‘iyosiddin Bahodirni Sabzavor shahriga hokim qilib tayinlaydi. A.N. Hirotda qolib o‘qishni davom ettiradi. A.N. she’riyatga nihoyat darajada qiziqdi, Sharq adabiyotining yirik namoyandalari ijodini qunt b-n, sinchiklab o‘rgandi. Oila muhiti bolaligidayoq unda adabiyotga, ayniqsa, she’riyatga zo‘r havas uyg‘otgan edi. Tog‘alari Mirsaid – Kobuliy, Muhammad Ali – G‘aribiy yetuk shoirlar bo‘lishgan. A.N.lar uyida ijod ahli tez-tez to‘planishib, mushoira qilishar, adabiyot va san’at haqida suhbatlashardi. 3-4 yoshlarida Alisher fors shoiri Qosim Anvorning ayrim she’rlarini yod aytib, yig‘ilganlarning olqish-u e’tiboriga sazovor bo‘ladi. Maktabga ilk qadam qo‘ygan chog‘larida Fariduddin Attorning mashhur “Mantiq ut-tayr” kitobini to‘liq yod oladi. A.N. 10-12 yoshlaridan she’r mashq qila boshlagan. Tarixchi Xondamirning yozishicha, yosh A.N.ning iste’dodidan mamnun bo‘lgan mavlono Lutfiy, uning:

Orazin yopqoch,
ko‘zumdan sochilur har lahza yosh,
Bo‘ylakim, paydo bo‘lur yulduz,
nihon bo‘lg‘ach quyosh

matla’li g‘azalini tinglab: “Agar muyassar bo‘lsa edi, o‘zimning o‘n-o‘n ikki ming forsiy va turkiy baytimni shu g‘azalga almashtirardim...”, – deya lutf etgan. A.N. 15 yoshida iste’dodli shoir sifatida tanilgan. She’rlarini turkiy (Navoiy taxallusi b-n) va forsiy (Foniy taxallusi b-n) tillarda yozgan.

Ayrim tarixiy manbalarda keltirilishicha, A.N. taxminan 13-14 yoshlar atrofida bo‘lganida otasi hayotdan ko‘z yumgan. Uni Abulqosim Bo-

bur o‘z tarbiyasiga oladi, katta badiiy iqtidori u-n g‘oyatda e’zozlaydi. 1456-y.da mamlakat poytaxti Hirotdan Mashhadga ko‘chiriladi, Abulqosim Bobur yosh Alisherni ham, xizmatida bo‘lgan Husayn Boyqaroni ham o‘zi b-n birga Mashhadga olib ketadi. 1457-y.ning bahorida to‘satdan Abulqosim Bobur vafot etadi. A.N. u-n bu og‘ir judolik bo‘ldi. U Mashhad madrasalaridan birida o‘qishini davom ettiradi. Do‘sti Husayn Boyqaro esa toj-taxtga ega chiqish ilinjida Marv va Chorjo‘y tomonlarga o‘z omadini izlab ketadi. Xurosonni temuriylarning yana bir vakili, Movarounnahr hukmdori Sulton Abu Said egallaydi va poytaxtni Samarqanddan Hirotga ko‘chiradi. Husayn Boyqaroning taxtga ega chiqish yo‘lidagi birinchi raqibi Abu Said edi. A.N. yaqinlarining xohish-rag‘bati Husayn Boyqaro tomonida bo‘lib, bu, avvalo, ularning oilaviy yaqinliklari b-n izohlanadi. O‘rtadagi bu vaziyat A.N. hayotini ancha murakkablashtirgan. A.N.ning Mashhaddagi hayoti mashaqqatlarga to‘la. Shoirning bu davrdagi ijodida o‘z yurtini sog‘inib yozgan g‘azallari talaygina. Orada, xususan, yoz fasllarida Hirotga borib-kelib ham turgan. 1463-y.da esa u uzil-kesil Hirotga qaytadi. Xuroson poytaxtida Sulton Abu Said o‘z tartibini o‘rnatgan, muhim vazifalarga u b-n Movarounnahrdan kelgan kishilar tayinlangan edi. A.N.ning Husayn Boyqaro b-n birga ketgan tog‘alari – Mirsaid va Muhammad Ali urushda halok bo‘ladi. A.N. Samarqandga ketadi. A.N.ning o‘sha kunlardagi ahvoli uning keyinchalik ustozi va hammaslak do‘sti Sayyid Hasan Ardasherga Samarqanddan yozgan she’riy maktubida nihoyatda ta’sirli va haqqoniy ifodalab berilgan (Q.: Navoiyning Sayyid Hasan Ardasherga maktubi).

A.N. Samarqandda 1465-y.dan 1469-y.ning bahorigacha yashadi, mashhur faqih Fazlulloh Abu Lays madrasasida o‘qib, turli fanlarga oid bilimlarini yanada chuqurlashtirdi. Samarqandning ko‘zga ko‘ringan shoirlari – Shayxim Suhayliy, Mirzobek, Mavlono Xovariy, Mir Qarshiy, Harimi Qalandar, muammogo‘y Uloyi Shoshiy, olim Mavlono Muhammad Olim va boshqalar b-n hamsuhbat bo‘ldi, do‘stlashdi. Samarqand shahar hokimi Ahmad Hojibek asli hirotlik bo‘lib, Vafoiy taxallusi b-n she’rlar yozardi, u A.N.ga alohida hurmat va e’tibor b-n qaradi, homiylik qildi. A.N. davlat ishlarini boshqarishda dastlabki tajribani Samarqandda orttirdi. Chunki Ahmad Hojibekning ko‘magida u davlat ishlari b-n ham shug‘ullangan. A.N.ning Samarqanddagi siyosiy faoliyati nihoyatda yuksak baholanib, unga “Chig‘atoy amiri” unvoni berilgan. 1469-y. boshlarida Sulton Abu Said Qorabog‘da o‘z askarlari tomonidan o‘ldiriladi. Ko‘pdan buyon shunday vaziyatni kutib yurgan Husayn Boyqaro zudlik b-n kelib, Hirot taxtini egallaydi. A.N. do‘sti Husayn Boyqaroning taklifi b-n Samarqanddan Hirotga yetib keladi. 1469-y. 14-aprel kuni, Ramazon hayiti munosabati b-n uyushtirilgan qabul marosimida A.N. o‘zining Husayn Boyqaroga atab yangi yozilgan “Hiloliya” qasidasini taqdim etadi. Podshoh A.N.ni muhrdorlik lavozimiga tayinlaydi.

A.N. Husayn Boyqaroning eng xavfli siyosiy raqibi – Yodgor Muhammad Mirzoni tunda qo‘lga olishda shaxsiy jasorat ko‘rsatadi. Yangi hukumatning ortiqcha soliqlaridan norozi bo‘lib, qo‘zg‘olon ko‘targan xalq ommasini tinchitishda adolat va mardonavorlik b-n ish tutadi. Shu voqealardan so‘ng ma’lum vaqt o‘tgach, Husayn Boyqaro hukumatidagi muhrdorlik vazifasiga A.N.ning roziligi b-n uning samarqandlik do‘sti, shoir Shayxim Suhayliy tayinlanadi. A.N.ning maqsadi saroyda maslahatchi bo‘lib qolish, ko‘proq ijodiy ish b-n shug‘ullanish edi. Biroq Husayn Boyqaro 1472-y.ning fevral oyida uni o‘z saroyining bosh vaziri qilib tayinlaydi va unga “Amiri kabir” unvonini beradi. A.N. butun kuchini mamlakatda tinchlik va osoyishtalik o‘rnatishga qaratdi. Vaqf ishlarini tartibga solishga kirishdi. Shaharlarda savdo-sotiqni, hunarmandchilikni rivojlantirishga katta ahamiyat beradi.

Buyuk insonparvar A.N. o‘rta asrdagi Uyg‘onish davrining boshqa ulug‘ zotlari singari butun hayoti b-n haqiqiy inson qanday bo‘lishi lozimligini ko‘rsatdi. Bosh vazir A.N. madaniyat va san’atning chinakam homiysi sifatida tanildi.

Uning faoliyatida ijtimoiy-siyosiy masalalarni to‘g‘ri hal etishga intilish, ijtimoiy adolat, jamiyatdagi barcha qatlamlarga teng munosabatda bo‘lish tamoyillari yetakchilik qiladi. Xondamirning qayd qilishicha, XV asrning 80-yy. davomida A.N. o‘z mablag‘lari hisobidan Hirotda va mamlakatning boshqa shaharlarida bir necha madrasa, 40 ta rabot, 17 masjid, 10 xonaqoh, 9 hammom, 9 ko‘prik, 20 ga yaqin hovuz qurgan va ta’mirlatgan. Ular orasida Hirotdagi “Ixlosiya”, “Nizomiya” madrasalari, “Xalosiya” xonaqohi, “Shifoiya” sihatgohi, Qur’on tilovat qiluvchilarga mo‘ljallangan “Dorul-huffoz” binosi, Marvdagi “Xusraviya” madrasasi, Mashhaddagi “Dorul-huffoz” xayriya binosi va boshqa noyob me’morlik yodgorliklari bor.

Bu davrda Hirotda adabiy hayot o‘zining haddi a’losiga ko‘tarilgan. A.N. atrofida Shayxim Suhayliy, Xoja Osafiy, Binoiy kabi o‘nlab shoirlar, Hasan Noyi, Xoja Abdullo Marvoriy, Qulmuhummad Udiy, Shohquli G‘ijjakiy kabi o‘nlab sozandalar, Mirxond, Xondamir singari tarixchilar, Sultonali Mashhadiy, Abdujamil Kotib, Xoja Hofiz Muhammad, Sultonali Koiniy, Muhammad Xandon, Mavlono Hijroniy kabi mashhur kotiblar, Behzod kabi musavvirlar qizg‘in ijodiy faoliyat b-n band edilar. Hirotda, umuman, Xuroson mulkida ma’naviy hayotning baquvvat ustunlaridan Abdurahmon Jomiy b-n A.N. o‘rtasidagi ijodiy hamkorlik – ustoz-shogirdlik ko‘p masalalarda hamfikrlilikka olib keldi. 1470-yy.ning oxirlarida A.N. o‘zining o‘zbek tilida yozgan she’rlaridan iborat ilk devoni – “B.B.” (“Badiiylik ibtidosi”)ni tuzdi. Mazkur devonda 777 g‘azal, 85 ruboiy, 52 muammo, 46 qit’a, 53 fard, 10 tuyuq, 10 lug‘z, 3 mustazod, 5 muxammas, 3 tarje’band, 2 musaddas bo‘lib, bunday mukammal devonni tuzish N.gacha kamdan-kam turkigo‘y shoirga nasib bo‘lgan. 1480-yy.ning oxirida turkiy she’rlaridan tashkil topgan ikkinchi devoni – “N.N.” (“Behad nodirliklar”) ga tartib berdi. 1481–82-yy.da “A.” (“Qirq hadis” yoki “Chihil hadis”) asarini yozadi. Unda Muhammad payg‘ambar (s.a.v)ning qirq hadisi to‘rtlik shaklida she’riy tarzda ifodalab berilgan. A.N. mansub adabiy hayotda she’riy janrlardan g‘azal, qasida, ayniqsa, muammo yozishga intilish anchayin kuchli edi. A.N.ning forsiy devoniga 373 ta muammo kiritilgan. Shunday adabiy mayllar tufayli u 1485-y. muammo janri qoidalari haqida maxsus “M.” asarini yozdi. A.N. 1483–85 yy.da turkiy tilda o‘zining besh dostondan iborat muazzam “X.” asarini yaratdi. “H.A.”, “F.Sh.”, “L.M.”, “S.S.”, “S.I.” dostonlarini o‘zida jamlagan bu muhtasham asar o‘zbek adabiyoti shuhratini olamga yoyib, jahon adabiyotining durdonalaridan biriga aylandi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. “X.”dan keyin Navoiy yana bir qancha asarlar yozdi. 1485-y. mashhur “N.J.” asarini ijod qildi, unda birinchi xalifalardan bo‘lmish Hazrat Alining 266 ta hikmati ruboyi tarona (to‘rt misrasi ham qofiyalangan) shaklida bayon etilgan. O‘sha davr kitobxonlari, shu jumladan, tarixchi Xondamir bu asarni g‘oyat yuksak baholagan.

1487-y.da A.N o‘z iltimosiga ko‘ra, vazirlik lavozimidan iste’foga chiqadi. Bosh vazirlik vazifasini Muhammad Majdiddin egallaydi. Davlat boshqaruvida yaxshi tajribaga ega A.N. mamlakatning chegara hududlaridan bo‘lgan Astrobodga hokim qilib tayinlanadi. N. hokimlik qilgan 2 yil davomida Astrobod shahar va viloyati obodonlashib, qo‘shni davlatlar b-n yaxshi munosabatlar o‘rnatiladi, savdo ishlari yo‘lga qo‘yiladi. A.N. Astrobodda ham ko‘p yangi she’rlar yozgan, Hirotdagi yor-do‘stlariga maktublar yo‘llab turgan. Astroboddan Husayn Boyqaroning to‘ng‘ich o‘g‘li, valiahd Badiuzzamonga yozgan maktubini davlatni boshqarish haqidagi qo‘llanma, deyish mumkin. A.N. doim Husayn Boyqaroni adolatli va ma’rifatli hukmdor qiyofasida ko‘rish orzusi b-n yashadi. Astroboddan Husayn Boyqaroga, shahzodalarga va boshqa amaldorlarga yozgan maktublarida ularni insof va adolatga chaqirar, davlat idora usulida mustahkam tartib o‘rnatish va ayrim islohotlar o‘tkazishga undar edi. Astrobodda N. b-n Husayn Boyqaro munosabatlariga putur yetkazuvchi gaplar yuzaga kelgach, podshoh A.N.ning Hirotga qaytishiga ruxsat beradi. Husayn Boyqaro N.ga bir nechta yuksak lavozimlarni taklif qiladi. A.N.

rozi bo‘lmagach, unga “Muqarrabi hazrati sultoniy” (“Sulton hazratlarining eng yaqin kishisi”) degan rasmiy unvon beriladi. Bu b-n A.N. davlat boshqaruvidagi barcha ishlarga aralasha olar va podshoh b-n istagan vaqtida ko‘rishish imkoniga ham ega edi. Binobarin, saroy amaldorlari, shu jumladan, Muhammad Majdiddin ham har bir muhim masalada A.N. b-n kelishish, maslahatlashishga majbur bo‘lgan.

N.ning Balxda hokim bo‘lib turgan ukasi Darveshali akasiga nisbatan bo‘layotgan nohaqliklardan, xususan, Majdiddinning xatti-harakatlaridan norozi bo‘lib, isyon ko‘targani tarixdan ma’lum. Bu isyon N.ning aralashuvi b-n tinchitilgan. Aynan shu voqea 1490-y.dan Majdiddinning siyosat maydonidan ketishiga bosh sabab bo‘lgan. A.N. hamisha ko‘proq ijodiy va ilmiy ishlar b-n shug‘ullanish, bu boradagi rejalarini amalga oshirish orzusi ila yashardi. Ammo hayotning turli-tuman sinovlari, kutilmagan yo‘qotishlar bunga hamisha ham imkon beravermagan. 1488-y. Sayyid Hasan Ardasher, 1492-y. Abdurahmon Jomiy, 1493-y. olim va shoir Pahlavon Muhammad birin-ketin hayotdan ko‘z yumdilar. N. o‘zi u-n qadrdon bo‘lgan bu insonlar xotirasini abadiylashtirish, ularga hurmatini izhor etish u-n “H.S.H.A.”, “Xam.M.” (“Besh hayrat”), “H.P.M.” risolalarini yozdi. Ulug‘ so‘z san’atkori bir lahza bo‘lsin ijodiy jarayondan to‘xtab qolmagan. 1489-y.da Astrobodda yoza boshlagan “T.M.A.” (“Ajam podshohlari tarixi”) asarini tugalladi. 1490-y. u turkiy adabiyot tarixidagi ilk tazkira – “M.N.” (“Nafislar majmuasi”) tazkirasini tuzishga kirishib, 1492-y.da nihoyasiga yetkazdi. Shu vaqtning o‘zida A.N. o‘zbek tilida she’riyat nazariyasi, aniqrog‘i, aruz vazni qoidalari haqida “M.A.” (“Vaznlar o‘lchovi”) ilmiy risolasini yaratdi. 1494-y.da turkiy tildagi maktublarini to‘plab “M.” (“Maktublar”) nomi b-n tartib berdi. 1495-y. Jomiyning “Nafahot ul-uns min hazarot ul-quds” (“Muqaddas yuksakliklardan esgan do‘stlik shabadalari”) asarini “N.M.” (“Muhabbat shabadalari”) nomi b-n tarjima qildi, uni qayta ishlab, turkiy mashoyixlar haqidagi yangi ma’lumotlar b-n boyitdi. Shu sababli, “N.M.”ga A.N.ning mustaqil asari sifatida baho berish mumkin. A.N. 1491–92-yy.dan boshlab turkiy tilda yozilgan hamma she’rlarini to‘plashga kirishdi va bu ish 1498–99-yy.da nihoyasiga yetdi.

“G‘.S.”, “N.Sh.”, “B.V.”, “F.K.” devonlarini o‘z ichiga olgan muazzam to‘plamning umumiy nomi “X.M.” (“Ma’nolar xazinasi”) bo‘lib, 4 devondan iborat bo‘lgani u-n “Ch.D.” deb ham atalgan. Devon shoirning butun hayoti davomida yozilgan she’rlarini qamrab olgan, ularda A.N.ning barcha davrlaridagi kayfiyati, dunyoqarashi, orzu-umidlari ifodalab berilgan. Taxminan shu yillarda A.N. forsiy she’rlaridan tashkil topgan “D.F.” (“Foniy devoni”)ni, fors tilidagi 2 qasidalar majmualarini tuzib, forsiy she’riyat taraqqiyotiga ham o‘zining munosib hissasini qo‘shdi.

1490-yy.ning o‘rtalariga kelib mamlakatda ijtimoiy-siyosiy tanglik kuchaya boshlaydi. Temuriylar xonadonida shahzodalar o‘rtasida yuzaga kelgan ziddiyatlar esa bu tanglikni yanada jadallashtiradi. Har bir shahzodaning o‘z tarafdorlari bo‘lib, ularni murosaga keltirish ko‘pincha A.N. zimmasiga tushar edi. Bosh vazir Nizomulmulk esa 1496–97-yy.da bu mojarolarda bir tomonlama harakat qilib, Muzaffar mirzonng onasi – Xadichabegimga yon bosadi. Shu sababli, Husayn Boyqaro va Astrobodda hokimlik qilayotgan o‘g‘li – valiahd shahzoda Badiuzzamon o‘rtasida harbiy to‘qnashuv yuz beradi. Saroydagi fitna, jumladan, Nizomulmulkning qabihligi natijasida Badiuzzamonning o‘g‘li, Husayn Boyqaroning eng sevimli nabirasi, N. kelajagiga katta umid bildirgan yosh shahzoda Mo‘min mirzo fojiali tarzda o‘ldiriladi. Shu tufayli, ko‘p o‘g‘illari Husayn Boyqaro b-n yovlashadilar. Bularning hammasi A.N. hayoti va ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

A.N.ning she’riy dahosi XV asr oxirlariga kelib yana jo‘sh urdi. U 2 yil mobaynida 2 ta yirik asar – “L.T.” (“Qushlar tili”) dostonini va “M.L.” (“Ikki til muhokamasi”) ilmiy asarini yaratdi. A.N.ning so‘nggi buyuk asarlaridan yana biri “M.Q.” (“Qalblar sevgani”)dir. U Sharq

adabiyoti tarixida Shayx Sa'diyning "Guliston", Kaykovusning "Qobusnoma", Nizomiy Aruzi Samarqandiyning "Chor maqola" kabi asarlari qatorida turadi. Bu asarida A.N. o'zining hayot yo'lini, boshidan kechirgan turmush mashaqqatlarini yorqin tasvirlab bergan.

1500-y.ning dekabrida Husayn Boyqaro isyon ko'targan o'g'li – Muhammad Husayn b-n sulh tuzib, Hirotga qaytar ekan, A.N. ham uni kutib olgani yo'lga chiqadi. Orada 2 – 3 kunlik yo'l bor edi. A.N. o'zining so'nggi she'rini Poyob rabotida yozadi va undan nusxa ko'chirtirib, kelayotgan Husayn Boyqaroga yuboradi. Uchinchi kuni A.N. hukmdor istiqboliga yaqinlashayotganida o'zini yomon his etadi, u b-n ko'rishayotganda hushidan ketib, qaytib o'ziga kelmaydi va hayotdan ko'z yumadi.

A.N.ning adabiy va ilmiy merosini 4 yo'nalishga bo'lib o'rganish mumkin: 1. Devonlari. 2. Dostonlari. 3. Forsiy tildagi she'riy merosi. 4. Ilmiy-filologik, nasriy va tarixiy asarlari. A.N.ning o'zbek tilida yaratgan she'riy merosi, asosan, "X.M." to'plamida jamlangan. Asar 4 qismdan iborat. Devonning birinchi qismiga "G'.S." ("Bolalik g'aroyibotlari"), ikkinchi qismiga "N.Sh." ("Yigitlik nodirotlari"), uchinchi qismiga "B.V." ("O'rta yosh badialari") va nihoyat, to'rtinchi qismiga "F.K." ("Keksalik foydalari") nomlari berilgan. "X.M." insonning murakkab va yuksak tafakkuri hamda behisob his-tuyg'ulari b-n bog'liq minglarcha she'r va yigirmaga yaqin she'r turlarini o'z ichiga olgan majmua bo'lib, Sharq adabiyoti tarixida noyob hodisadir. Bu xil majmua A.N.ga qadar Amir Xisrav Dehlaviy tomonidangina tuzilgan. Ushbu to'plamga kirgan she'rlarni A.N. butun umri davomida turli sharoitlarda, har xil sabablar b-n yozgan bo'lib, ularning aksariyati shoirning tarjimayi holi b-n chambarchas bog'liq. A.N. "X.M."ga qadar "B.B.", "N.N." devonlarini tuzgan. 1465-y.da muxlislari tomonidan fanda "I.D." nomi bilan mashhur bo'lgan devoni tartib berilgan. "X.M." ana shu 3 devondan o'rin olgan hamda "N.N." tuzilgandan keyin yozilgan she'rlar asosida yuzaga kelgan. A.N.da keksalik chog'larida barcha she'rlarini yig'ib, xronologik tartibda 4 ta devon tuzish g'oyasi bo'lgan. Biroq "X.M."ni tuzishda muharrirlik vazifasini bajargan Husayn Boyqaro bu g'oyani qo'llab-quvvatlamagan ko'rinadi. Uning "G'.S." devoni bolalik mashqlaridan, "N.Sh." yigitlik she'rlaridangina iborat bo'lmay, bu boshlang'ich devonlarda shoirning keyingi davr she'riy mo'jizalaridan ham namunalar borki, Husayn Boyqaro shuni ma'qul ko'rgan. Shu sababli "X.M." tarkibidagi 4 devon nomining mazmunini shartli ma'noda tushunish, bunda she'rlar ko'p holda aralash tarzda joylashtirilganini nazardan qochirmaslik muhim. "X.M." dagi 4 devonda 2600 g'azal (har bir devonga 650 tadan), 210 qit'a, 133 ruboiy, 86 fard, 52 muammo, 13 tuyuq, 10 muxammas, 10 chiston, 5 musaddas, 4 tarje'band, 4 mustazod, 1 musamman, 1 tarkibband, 1 qasida, 1 masnaviy, 1 soqiynoma – Sharq she'riyatining 16 turi namoyondir. A.N.ning ishq-muhabbat tug'yonlari, xususan, g'azallari uning yigitlik davrida yozilgan. Bunga shoirning "I.D."ga kiritilgan, xalq orasida "Qaro ko'zum", "Kelmadi" ("Munojot") nomlari b-n mashhur bo'lgan g'azallari yorqin misol bo'la oladi. Uning "Topmadim" radifli g'azali ham shu davrda, aniqrog'i, Mashhaddan Hirotga qaytib, shaxsiy turmushini izga solish taraddudida yurganda yozilgan bo'lib, g'azalning har bayti yurakni tirnaydi. A.N.ning ishq b-n bog'liq tasvirlari rang-barang va boy bo'lib, biz unda inson hayoti va holatining cheksiz ko'p qirralarini – shodlikni ham, xafachilikni ham, takrorlanmaydigan lahzalarni ham, har kun, har soatda yuz beruvchi ko'ngilsizliklarni ham ko'ramiz. Zotan, o'zbek she'riyatida inson dardi va hasratlarini, o'z sevgilisiga talpinishlarini N.dan o'tkazib ifodalagan shoirni topish qiyin. Ishq talqinida ham boshqa mumtoz ijodkorlar kabi A.N. ramziylikka ko'p o'rin beradi. "Yor" – bu dunyo go'zaligina emas, uningcha, bu – butun borliqni yaratgan va hamma narsani harakatga keltirib turgan Alloh hamdir. Shoir o'zining tasavvufiy she'rlarida yorning qoshi, ko'zi, zulfi, sochi (va h.k.) deganda Allohning kuch-qudrati, mehri, oliy darajadagi go'zalliklarini ko'zda tutadi. A.N.ning barcha lirik janrlarga oid she'rlari

yuksak mahorat b-n yozilgan bo‘lib, inson manfaatlariga, uning e’tiqodini mustahkamlashga, ruhini sog‘lomlashtirishga xizmat qiladi. Uning falsafiy, axloqiy mazmundagi hayot nafasi ufurib turgan har bir she’ri bu janrlarning o‘lmas namunalaridir.

Ulug‘ shoir ijodining shoh asari “X.” 5 dostondan iborat. Bular “H.A.” (“Yaxshilar hayrati”), “F.Sh.”, “L.M.”, “S.S.” (“Yetti sayyora”), “S.I.” (“Iskandar devori”) dostonlaridir. Fors adabiyotidagi xamsachilikka javob sifatida o‘zbek tilida birinchi marotaba yaratilgan A.N. “X.”si bu tilning cheksiz imkoniyatlarini amalda isbot etdi. 52 ming misradan iborat mazkur beshlik XV asr islom tafakkurining borliq va tabiat, inson va jamiyat, axloq va kamolot haqidagi o‘ziga xos qomusi edi. Shoir voqealarni qadim Sharq tarixining Xusrav, Shopur, Bahrom, Iskandar kabi nomlari afsonalar b-n chulg‘angan shaxslar, Farhod, Shirin, Layli, Majnun kabi oshiqlar hayotidan oldi. Ularga yangi mazmun berdi, turkona ruh kiritdi. O‘z davrining dardli masalalarini, avlodlarning orzu va armonlarini ko‘tarib chiqdi. “Xamsa” asari zamondoshlariga nihoyatda zo‘r ta’sir ko‘rsatdi. Abdurahmon Jomiy uni hayajon b-n olqishladi. Sulton Husayn esa shoirni o‘zining oq otiga mindirib, jilovdorlik qildi.

“L.T.” – A.N.ning so‘nggi dostoni bo‘lib, “X.”dan 14 yil keyin – 1498–99-yy.da yaratilgan. Bu asarini shoir mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, “Foniy” taxallusi b-n yozgan. “L.T.” A.N.ning bolaligida sevib o‘qigani – Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” (“Qushlar tili”) dostoniga javob tarzida, shoirning o‘z ta’biri b-n aytganda, “tarjima rasmi bila” yuzaga keltirgan she’riy mo‘jizasi edi. “L.T.” aruzning ramali musaddasi maqsur (foilotun – foilotun – foilon) vaznida yozilgan bo‘lib, 3598 baytdan iborat. Dostondagi bosh g‘oya, bosh muammo tasavvufdagi imon, e’tiqod va ma’naviyat masalalaridir. A.N.ning niyati oddiy insonlarga insoniylikning ilohiy mohiyatini tushuntirib berish, ularni og‘ir sinovlardan o‘tkazib, komil inson darajasiga yuksaltirishdir. Shoir asarda qushlar timsolida Haq yo‘liga kirgan va Allohni ko‘rishga, unga yetishishga astoydil kirishgan kamolot egalarini tasvirlashga intilgan. Hudhud degan qush nomidan so‘ylangan yuzlarcha hikoyalar irfoniy mazmunda bo‘lib, nihoyatda hayotiy, bir-biridan qiziqarli. Qushlarning rang-barang timsollari orqali A.N. o‘zining tasavvuf ta’limoti b-n bog‘liq g‘oyalarini, Alloh hamma narsadan tashqarida emas, balki ichida, o‘zida ekanini ko‘rsatish va isbotlashga harakat qiladi. Insonning ulug‘vorligini majoziy uslub b-n, ta’sirli qilib, real ijtimoiy, axloqiy hodisalar orqali bog‘lab tasvirlagan. Tasavvufning vahdat ul-vujud nazariyasi ham shu tarzda asarda o‘zining badiiy in’ikosini topgan. Bu b-n N. tasavvuf g‘oyalarini keng kitobxonlar ommasiga badiiy ko‘rkam va jonli yetkazishda oliy darajada san’atkorlik ko‘rsatgan.

A.N. butun hayoti davomida o‘zbek tili b-n bir qatorda forsiy tilda ham ijod qilib, barakali meros yaratdi. Uning bu tildagi she’rlari 1490-yy.ning o‘rtalarida, Eron olimi Yusuf Sheroziy taxminicha, 1495–1500-yy. orasida muallif tomonidan devon holiga keltirilgan va “D.F.” nomi b-n mashhur. Mazkur devon dastlab 1963-y.da Tehronda, 1965-y.da Toshkentda, 1993-y.da Dushanbeda nashr etilgan. O‘zbek olimi H.Sulaymonov tavsifi bo‘yicha “Devoni Foniy”da, “Debocha”dan tashqari, 7 qasida, 554 g‘azal, 1 musaddas, 1 marsiya, 72 qit’a, 73 ruboiy, 16 ta’rix, 373 muammo, 9 lug‘z bor. “D.F.”dagi g‘azallarning aksariyati mashhur fors shoirlari she’rlariga tatabbu’lardan iborat. Jumladan, Jomiyning 52, Hofiz Sheroziyning 237, Xisrav Dehlaviyning 33, Sa’diy Sheroziyning 25, Mavlono Kotibiyning 5, Shohiy Sabzavoriyning 5, Kamol Xo‘jandiyning 4 va boshqa g‘azaliga tatabbu’ bog‘langan. A.N. fors tilida yozgan mustaqil g‘azallariga “Muxtara”, “Ixtiro” deb sarlavha qo‘ygan bo‘lib, ularning soni 50 dan ortiq. A.N. o‘zining forsiy qasidalaridan alohida to‘plamlar ham tuzgan, ulardan biri “Sittayi zaruriya” (“Olti zarurat”), ikkinchisi “Fusuli arbaa” (“To‘rt fasl”) deb ataladi. “Sittayi zaruriya” to‘plamiga 6 qasida (“Ruh ul-quds”, “Ayn ul-hayot”, “Tuhfat ul-afkor”, “Qutb ul-qulub”, “Minhoj unnajot”, “Nasim ul-xuld”) kiritilgan bo‘lib, ularni Xisrav Dehlaviy, Jomiy, Anvariy, Haqoniy, Sol-

mon Sovajiy va boshqa qasidanavislar ta'sirida yaratgan. XIV–XV asrlar adabiyotida shoirning she'riy mahoratini baholashda qasida janri ham alohida o'rin tutganini e'tiborda tutsak, A.N.ning qasidanavislik salohiyati juda yuqori bo'lgan. A.N.ning "Fasuli arbaa" to'plamiga 4 qasidasi kiritilgan bo'lib, ulardan "Bahor" 57 bayt, "Saraton" 71 bayt, "Xazon" 33 bayt, "Day" 70 bayt iborat. Ularda yilning 4 fasli – bahor, yoz, kuz va qish o'ziga xos zavq b-n tasvirlangan va to'rttalovi ham zamon podshohi – Sulton Husayn Boyqaroni podshoh va shaxs, yaxshi do'st va oliyjanob inson sifatida vasf etishga bag'ishlangan. Umuman, A.N. o'zining forsiy tildagi asarlari b-n zamondoshlarining, birinchi navbatda, Jomiyning tahsiniga sazovor bo'lgan va fors-tojik adabiyoti, xususan, she'riyati rivojiga munosib hissa qo'sha olgan.

A.N. ilmiy tadqiqotlari va izlanishlarining katta qismi, tabiiyki, til va adabiyot masalalari b-n bog'langan. Shu ma'noda "M.N." tazkirasini yaratish b-n A.N. o'z davri adabiyotiga, uning ijodkorlariga o'ziga xos adabiy haykal o'rnatdi, desak sira xato bo'lmaydi. Asarda turkiy va forsiy tillarda ijod qilgan 459 shoirning hayoti va yozgan asarlari haqida noyob ma'lumotlar berilgan, bu ijodkorlarning yutuqlari va kamchiliklari, o'ziga xos xususiyatlari ko'rsatilgan. A.N. ning "Xam.M.", "H.S.H.A.", "H.P.M." asarlari "M.N."ning davomiday bo'lib, bu davr adabiyoti, fani va madaniyatining yirik namoyandalari hayotini o'rganishda eng qimmatli manbalardir. Mazkur asarlar badiiy-tasavvuf adabiyotning manoqib (yoki manqaba) janriga tegishli bo'lib, uslubining samimiyligi b-n ajralib turadi. A.N.ning katta adabiy va tarixiy ahamiyatga ega "M." asari uning turkiy tilda o'z zamondoshlari b-n olib borgan yozishmalaridan iborat, maktub janrining mukammal namunasi sanaladi. Maktublarning miqdori turli qo'lyozmalarda turlicha, ular bir-birini to'ldiradi. A.N. o'zining forsiy maktublarini ham yig'ib "M." tuzgan. Biroq u bizgacha yetib kelmagan yoki topilmagan.

A.N.ning eng muhim asarlaridan biri "V." bo'lib, bir qarashda, shoir va buyuk davlat arbobining o'zi qurgan imoratlariga vaqfi, ya'ni rasmiy hujjatidek ko'rinsa ham, aslida unda Sulton Husayn Boyqaro davri davlat tizimi, A.N.ning bu davlatni boshqarishdagi o'rni, uning tarjimayi holi, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy qarashlari katta bilimdonlik va aniqlik b-n yoritilgan. Shuning u-n ham n.shunoslikda bu asarga A.N. nasrining ajoyib namunasi sifatida qaraladi. Muallif fikrlarining ba'zilarini she'r b-n, xususan, ruboiy shaklida bayon qilishi uning qaysi masalaga qo'l urmasin, doim she'riyat b-n nafas olganini namoyon etadi. A.N.ning adabiyot nazariyasiga oid "Mufradot" ("Risolayi muammo") asari muammo yozish va yechish qoidalarini ilmiy izohlashga bag'ishlangan. Asar forsiy tilda yozilgan. N. davrida she'rning muammo turi nihoyatda keng iste'molda bo'lgan. Aftidan, bu janr nazariyasi va amaliyoti davr kitobxonlarining adabiy didi, tarbiyasi b-n ham bog'langan edi. A.N.ning "M.A." ("Vaznlar o'lchovi") va "M.L." ("Ikki til muhokamasi" yoki "Ikki til tadqiqi") asarlari boshqa ilmiy tadqiqotlaridan farqli o'laroq umumturkiy ahamiyatga ega va boshqa turkiy xalqlarning she'riyati va tillarini o'rganishga ham xizmat qilib kelmoqda. A.N. "M.A."ni aruzning birinchi tadqiqotchisi Xalil ibn Ahmad, keyingi davr olimlaridan Shams Qays, Xoja Nasriddin Tusiy, zamonaviy tadqiqotchilardan Jomiy tajribalaridan ijodiy istifoda etib yaratgan. Aruz vazni bo'yicha o'zbek tilidagi bu birinchi ilmiy qo'llanmada uning asosiy ruknlari va boshqa unsurlari, 19 bahrining tuzilishi, ruboiy vaznlari aniq ta'riflab, turkiy she'riy misollar orqali asoslab, izohlab berilgan. Asarda aruz vazniga tushmaydigan she'riy vaznlar – tuyuq, chinga, mustazod, aruzvoriy, budi-budoyi va boshqa turkiy she'riy vaznlarga ham izoh va talqinlar berilgan. Bu asar aruz bo'yicha bugungi kunda ham o'z ilmiy qimmati va amaliy ahamiyatini yo'qotmagan.

"M.L."da turkiy tilning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotdagi o'rni, uning grammatik mukammalligi, so'zlarga boyligi forsiy til qoidalari va hodisalariga qiyoslangan holda chuqur va aniq misollar orqali tahlil etilgan. A.N. o'zining bu tilni, uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini,

so‘z va iboralarga boyligini shoir sifatida chuqur egallagani u-n, uning boshqa tillardan kamlik joyi yo‘qligini, aksincha, ularga nisbatan o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanini vatanparvar olim o‘laroq ehtiros b-n ko‘rsatib, isbotlab bergan. Asarda muqoyasa u-n keltirgan 100 ta turkiy fe’l-ning aksari o‘zbek tilida hozirgacha iste’molda. Shu b-n birga “M.L.”da o‘zbek adabiyoti tarixi, uning boshqa adabiyotlar, xususan, forsiy adabi-yot b-n yaqindan bog‘langani, N. ijodining rivoj-lanish yo‘llari, ayrim asarlarining yuzaga kelish sabablari haqida ham qimmatli ma’lumotlar bor.

A.N. hayotining oxirlarida “M.Q.” nasriy asarini yozdi. Asar 3 qismdan iborat. Uning bi-rinchi qismi 40 faslga ajratilgan. Har bir faslida muallif o‘zi yashagan davrdagi bir tabaqa hayoti, axloqi va vazifalari haqida bahs yuritadi. A.N. turli tabaqa vakillarining yaxshi ishlari haqida ham, kamchilik va nuqsonlari haqida ham goh halimlik, goh g‘azab-nafrat b-n mulohaza yuri-tib, ularni insofga chaqirmoqchi, tarbiyalamoq-chi bo‘ladi. Asarda A.N.ning inson axloqiga va tarbiyasiga doir eng noyob pand-nasihatlari xalq maqollari va hikmatli so‘zlari shaklida bayon qilingan. Ko‘p o‘rinda shoir o‘z fikrlarini bayt, qit'a, masnaviy, ruboiy shaklida ifodalashi asar-ga rang-baranglilik bag‘ishlagan. “T.M.A.” va “T.A.H.” A.N. Sulton Husayn Boyqaro davri ijtimoiy-siyosiy tarixiga bag‘ishlab yozmoqchi bo‘lgan asarining boshlang‘ich namunalaridir. A.N. “T.M.A.”da qadimgi Eron podshohlari, ularning tarixda muhrlanib qolgan ishlari to‘g‘-risida hikoya qiladi. Undagi ma’lumotlarni N. ko‘proq Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma” dostonidan hamda “Tarixi Tabariy” kitobidan olgan. A.N.ning “T.A.H.” asari esa islom dini tarixi b-n bog‘liq hikoyatlar va adabiy asarlar-ni, xususan, bir qator payg‘ambarlar hayotini, Buqrot (Gippokrat), Aflotun (Platon), Batlimus (Ptolemey) kabi donishmandlarni bilib olish u-n imkon beruvchi muhim manbadir. Ayni vaqtda A.N.ning bu asarlari o‘zbek badiiy nasrining go‘zal namunalaridir. A.N. o‘zidan boy she’riy, nasriy va ilmiy meros qoldirgan bo‘lib, bu me-rosning hajmi “L.T.” dostonida shoirning o‘zi ta’kidlashicha, 100 ming baytdan ortadi. Bu b-n A.N. o‘zbek adabiyotini jahon yuksakligiga ko‘-tardi. O‘zbek adabiyotida lirik janrlar va dos-tonchilikning eng yuqori taraqqiyoti A.N. nomi b-n bog‘langandir. A.N. asarlari o‘nlab xalqlar-ning tillariga tarjima bo‘lgan. M-n, “M.N.” XVI asrdayoq fors tiliga Faxriy bin Sulton Muham-mad Amiriy, Muhammad Qazviniy va Shohali Abduali Nishopuriy tomonidan 3 marta tarjima qilingan. A.N.ning boshqa tillarga tarjima qilin-gan dastlabki badiiy asari “S.S.” bo‘ldi. Xristofor Armaniyning 1557-y.da italyan tilida nashr etil-gan “Sarandib shohi uch o‘g‘lonining ziyorati” asarida “S.S.” dostonidagi qoliplovchi hikoya – “Bahrom va Dilorom” mavzusi hikoya qilinadi. Bu asar nemis, fransuz va golland tillariga tarji-ma qilinib, 11 marta nashr etilgan. Shuningdek, XVII asr gruzin shoiri Sitsishvili N.ning “S.S.” dostonini erkin tarjima qilib, “Yetti go‘zal” dos-tonini yaratdi. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida A.N.ning “M.L.” asari turk va tatar tillariga tarjima qilindi. XX asrda ham, bugungi kunda ham N. asarlarini turli tillarga tarjima qi-lish miqyosi yanada kengaydi.

N. vafot etganidan keyin o‘tgan davr mo-baynida uning asarlari forsiy va turkiy xalqlar orasida keng yoyildi. Atoqli tojik shoirlarining ko‘pchiligi, Fuzuliy, Kishvariy, Mirzo Fatali Oxundov, Sobir kabi ozarbayjon yozuvchila-ri, Ozodiy, Mahtumquli va Zelili kabi turkman shoirlari, qozoq yozuvchisi Abay Qo‘nonboyev, qoralpoq sohibqalamlari Berdaq, Ajiniyoz, ta-tar shoirlari Abdulla To‘qay, Hayum Nosiriy va boshqalar A.N.ga yuksak baho berib, ayrim asar-lariga nazira bitdilar. A.N. ijodiyotiga qiziqish, uni o‘rganish Yevropa va Rossiyada ham xiyla katta tarixga ega. 1697-y. fransuz olimi Bar-tolemi d’Erbeloning “Sharq kutubxonasi” ensik-lopediyasida N. tarjimayi holi va asarlarining nomi keltirilgan. Sharqshunos Silvester de Sasi (1958–1838) tadqiqotlarida ham N.ning nomi uchraydi. Fransuz sharqshunosi Katrmer 1841-y. da bosilgan xrestomatiyasida A.N. ning “M.L.” va “T.M.A.”ini e’lon qilgan. 1957-y.i I.N. Be-rezin tomonidan Qozonda chop etilgan “Turk

xrestomatiyasi”da uning bir necha asarlaridan parchalar bergan. M.Nikitskiy 1856-y.da birinchi manbalar asosida “Amir Nizomiddin Alisher. Uning davlat va adabiyot sohasidagi ahamiyati” mavzuida magistrlik dissertatsiyasini yozadi. Shu b-n birga, N.I.Ilminskiy, V.V.Velyaminov-Zernov, V.V.Bartold, Y.E.Bertels, S.N.Ivanov, N.I.Konrad, M.Belen, Pave de Kurteyl, E.Braun va boshqa sharqshunoslar A.N.ning faoliyati va merosi b-n shug‘ullandilar.

Turkistonda XX asr boshidan boshlangan, tashabbuskori jadidlar bo‘lgan ma’rifiy uyg‘onish A.N.ning hayoti va faoliyatini o‘rganishda ham o‘z ifodasini topdi. 1919-y.da Toshkentda Fitrat nashrga tayyorlagan “Insoniyat haqinda Navoiyning fikri” nomli risola bosilib chiqdi. Bu kitobcha A.N.ning “H.A.” dostonining “Salotin bobida” (“Sultonlar haqida”) degan qismidan parcha edi. Shundan so‘ng A.N. ijodini o‘rganish va ommalashtirish keng tus oldi. Fitratning “Navoiyning forsiy shoirligi ham uning forsiy devoni to‘g‘risinda (“Maorif va o‘qituvchi” jurnali, 1925)” va “Farhod-u Shirin” dostoni to‘g‘risida” (“Alanga” jurnali, 1930) maqolalari ilmda alohida e’tiborga molik. 1926-yil 4-mart kuni Boku shahrida Birinchi Turkologiya qurultoyi doirasida N.ning hijriy-qamariy yil hisobidagi 500 yillik yubileyi nishonlandi. Yubileyda V.V.Bartold, A.N.Samoylovich, F.Ko‘pruluzoda, B.Vahobzoda kabi olimlar N.ning hayoti va adabiy faoliyati haqida ma’ruzalar qildilar, matbuotda ko‘plab maqolalar e’lon qilindi. Adabiyotshunoslik fanining n.shunoslik sohasi yuzaga keldi. Bu sohada olimlar va adiblardan Oybek, O.Sharafiddinov, S.Ayniy, A.Fitrat, V.Zohidov, V.Abdullayev, Izzat Sulton, A.Qayumov, P.Shamsiyev, H.Sulaymonov, N.Mallayev, S.G‘aniyeva, A.Hayitmetov, A.Abdug‘afurov, A.Rustamov, Y.Is’hoqov, I.Haqqul, Sh.Sirojiddinov va boshqalar salmoqli ishlar qildilar, A.N. ijodi bo‘yicha o‘nlab nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari yozildi. Yozuvchi Oybek “Navoiy” romanini, Izzat Sulton “Navoiyning qalb daftari” hujjatli qissasini, L. Bat “Hayot bo‘stoni” qissasini, Mirkarim Osim hikoyalar turkumini yaratdi.

Ayniqsa, XX asrning 50-yillaridan keyin n. shunoslikda sermahsul yillar bo‘ldi. A.N. asarlarining mamlakatimiz kitob fondlari va chet ellardagi kutubxonalarda saqlanayotgan, deyarli, barcha nodir nusxalari o‘rganildi. A.N.ning ko‘pgina asarlarining ilmiy-tanqidiy matni ishlab chiqildi. “D.F.” va boshqa asarlarining nodir nusxalari topilib, nashr etildi. XX asrda A.N. ning chinakam sahnaviy hayoti boshlandi. Izzat Sulton va Uyg‘un “Alisher Navoiy” dramasini (1945, 1948), I.Mahsumov bastakorlar Y.Rajabiy va S.Jalil b-n hamkorlikda “Navoiy Astrobodda” musiqali dramasini (1967) yozdilar. A.N. obrazi kinoekranda ham mujassamlashdi. A.N. dostonlari asosida yaratilgan “Farhod va Shirin” musiqali dramasi (1937), “Layli va Majnun” operasi (1942), “Suhayl va Mehri” baleti (1967), “Dilorom” operasi (1958), “Iskandar” dramasi (1991) teatr san’atining eng yaxshi asarlaridan bo‘lib qoldi. Biroq sobiq sho‘ro tuzumi davrida madaniy merosimizni xalqimizga yot mafkura qolipiga solib talqin qilishga urinishlar bo‘ldi. Bu hodisa A.N. ijodiga munosabatda ham o‘z ifodasini topdi. Uni yo‘qsillarning do‘sti, mulkdorlarning muxolifi qilib ta’riflashga intilishdi. Jahon adabiyotining durdonasi bo‘lgan asarlaridagi (M-n, “X.” dostonlaridagi) muhim boblar qisqartirib nashr etildi.

A.N.ning hayoti va ijodi Allohga imon keltirgan, Qur’oni Karimdagi har bir oyatni muqaddas deb bilgan, naqshbandiya tariqatining hayotbaxsh g‘oyalarini o‘z asarlarida targ‘ib qilgan ulug‘ mutafakkirning hayoti va ijodidir. A.N. ijodi Qur’oni Karim va hadisi sharifdan oziqlanadi. Garchi n.shunos olimlar buyuk shoir adabiy merosini targ‘ib qilish bo‘yicha ko‘pgina ishlarni amalga oshirgan bo‘lsalar ham, A.N. ijodining mazmun-mohiyati ko‘pchilik kitobxonlar u-n tushunarsiz bo‘lib qoldi. Mustaqillik bizga barcha qadriyatlarimiz qatori A.N. merosini o‘rganishning keng ufqlarini ochdi. Uning ma’naviy sarchashmalari, ichdan nurlantirib turgan milliy va umumbashariy qadriyatlar, islom dini va irfoniy g‘oyalarni teran anglash ham anglatishga imkon yaraldi. 1991-y.da A.N. tavalludining 550 yilligi

tantanali nishonlandi. Toshkentda A.N. nomidagi O‘zbekiston Milliy bog‘i barpo etildi va shoirning salobatli haykali qad ko‘tardi. Shoirning 20 jildli mukammal asarlar to‘plami nashr etildi. 2011-y.da A.N.ning 10 jilddan iborat To‘la asarlar to‘plami chop qilindi. Bir guruh adabiyotshunoslar tomonidan ulug‘ shior hayoti va ijodining turli qirralarini qamrab olgan 2 jilddan iborat-“Alisher Navoiy. Qomusiy lug‘at” yaratildi (T., 2016). Oliy oquv yurtlarida “Navoiyshunoslik” fani joriy etildi va shu nomdagi darslik tuzildi (Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik (darslik). – T., 2018). O‘zbek tilining O‘zbekistonda va xalqaro miqyosda nufuzini oshirish, o‘zbek adabiyoti, folklori, milliy qadriyatlarini targ‘ib etish maqsadida Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tashkil topdi (2016-y). A.N. ning hayoti va ijodini, uning boy ilmiy-adabiy merosini o‘rganish, asarlarini yurtimiz va xorijiy mamlakatlarda keng targ‘ib qilish hamda xotirasini abadiylashtirishga qaratilgan sa’y-harakatlar natijasida Alisher Navoiy Xalqaro jamoat fondi tashkil etildi (2021-y. 4-fevral.). 2021-y.da A.N. tavalludining 580 yilligi keng nishonlandi. O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutida A.N.ning hayoti, faoliyati, adabiy va ilmiy merosiga oid ma’lumotlar, talqin va tahlillarni o‘zida jamlagan 4 jildli “Alisher Navoiy ensiklopediyasi” yaratildi (2024-y). Yozuvchi Isajon Sulton yangicha tamoyillar asosida “Alisher Navoiy” romanini yozdi. Alisher Navoiy Xalqaro jamoat fondi tashabbusi va sa’y-harakatlari bilan 30 jildlik “Istiqlol davri o‘zbek navoiyshunosligi” to‘plami nashr etildi (2023).

Mamlakatimizda A.N. xotirasi yuksak darajada e’zozlanadi. Bir viloyat, shahar, oliy o‘quv yurti, Toshkentdagi Davlat kutubxonasi, O‘zR FA Davlat adabiyot muzeyi, Toshkentdagi Katta akademik opera va balet teatri, San’at saroyi, Toshkentdagi metro bekati va o‘nlab ko‘chalar uning nomi b-n atalgan. A.N. hayoti va ijodiga bag‘ishlab haykaltaroshlar, rassomlar va bastakorlar asarlar yaratishgan. Har yili A.N. tug‘ilgan kun 9-fevralda ilmiy-an’naviy konferensiyalar o‘tkazilib, A.N. merosini o‘rganish sohasida qilingan yillik ishlarga yakun yasaladi.

Ad.: *Sharafiddinov A. Alisher Navaiy. – T., 1939; Ғиёсиддин Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – T., 1948; Бертельс Е.Э. Навои. М. – Л., 1948; Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. – T., 2015; Жалолов Т. “Хамса” талқинлари. – T., 1960; Абдуғафуров А. Навоий ижодида сатира. – T., 1972; Иззат Султон. Навоийнинг қалб дафтари. – T., 1969; Зоҳидов В. Улуғ шоир ижодининг қалби. – T., 1970; Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – T., 1979; Маллаев Н. Алишер Навоий ва халқ ижодиёти. – T., 1974; Ҳаққул И. Занжирбанд шер қошида. – T., 1989; Шодиев Э. Алишер Навоий ва форс-тожик адиблари. – T., 1989; Қаюмов А. Алишер Навоий. – T., 1991; Ҳайитметов А. Навоийхонлик суҳбатлари. – T., 1993; Абдуқодиров А. Навоий ва тасаввуф. Хўжанд, 1994; Жумахўжа Н. Сатрлар силсиласидаги сеҳр. – T., 1996; Қодиров М. Навоий ва саҳна санъати. – T., 2000; Vohidov R., Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi (Eng qadimgi davrdan XVI asr oxirigacha). – T., 2006; Ҳаққул И. Навоийга қайтиш. 1-5-китоблар. – T., 2011; 2024; Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий: Манбаларнинг қиёсий-типологик, текстологик таҳлили. – T., 2011; Очилов Э. Алишер Навоий. – T., 2011; Юсупова Д. Ўзбек адабиёти тарихи (Алишер Навоий даври). – T., 2016; Алишер Навоий. Қомусий луғат. 2 жилдлик. – T., 2016; Раҳмонов В. Муттоз сўз сеҳри. – T., 2015; Сирожиддинов Ш., Юсупова Д., Давлатов О. Навоийшунослик. Дарслик. – T., 2018; Асадов М. Соқийнома: тарих ва поэтика. – T., 2020; Жабборов Н. Маоний аҳлининг соҳибқирони. – T., 2021; Абдуқодиров А. Амир Алишер Навоий. – T., 2022; Эргашев Қ. Алишер Навоийнинг насрий услуби масалалари. – T., 2022; Ражабова Б. Сўзлар билан сўзлашув. – T., 2023; Турсунов Ю. Навоийнинг ҳаёт йўли: йиллар ва манзиллар. – T., 2023; Сирожиддинов Ш. Амир Алишер. – T., 2023; Istiqlol davri o‘zbek navoiyshunosligi. 30 jildlik. – T., 2023.*

Ab.H., M.A.

AAZZ (ar. – eng aziz va hurmatli, eng izzatli). N. “B.V.” devonidagi 288-g‘azal maqta’sida “xalqning aazzi” degan iborasi orqali Muhammad (s.a.v.)ni nazarda tutgan va baytda u sharif Zotning “Qanoatli kishi aziz, tama qilgan har tomonlama xor bo‘ladi”, degan mazmundagi hadisiga ishora qilgan:

Haqdin azizliq tilasang, eldin uz tama’,
Kim xalqning aazzi dedi: “azza man qana’...”

Ad.: *Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик, 3-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик, 1-жилд. – Т., 1983; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва табъироти ирфоний. – Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.); Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005; Ҳаққул И. Занжирбанд шер қошида. – Т., 2021.*

S.R.

AAZZI AS’HOB – hamsuhbatlarning eng azizi; **Aazzi ahbob** – do‘stlarning eng azizi. N. “B.B.” debochasida o‘zini devon tartib berishga undagan kishilarni xotirlab shunday yozadi: “Agarchi, alarkim axassi as’hob va aazzi ahbob erdilar, ko‘p qatla bu ish irtikobig‘a iltimos va taklif qilur erdilar”.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик, 1-жилд. – Т., 1983; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик, 1-жилд. – Т., 1983; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва табъироти ирфоний. – Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.); Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005.*

S.R.

AB (ar.) – ota, padar. N. ijodida keng istifoda etilgan so‘z. M-n:

Otang oy-u onang xurshed edi erkinki,
sen tug‘dung,
Vale husn-u latofatda ne ab
o‘xshar sanga, ne umm.

N. “L.M.” dostonida shahzoda Sulton Uvays Bahodirni madh qilib, zotidagi hayo va odobni amaki, tog‘a va otaga o‘xshatadi:

Zotida hayo bila adab ham,
Ul nav’ki, ammu xol-u ab ham.

Ad.: *Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва табъироти ирфоний. – Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.); Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик, 1-жилд. – Т., 1983; Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik / Darslik. – T., 2018.*

S.R.

ABAD (ar.) – mangu, boqiy, oxiri yo‘q kelajak zamon, “azal”ning ziddi; A. makon va zamon ta’siridan xoli, doimiy barqaror, hech qachon yo‘q bo‘lmaydigan ma’nolarini anglatib, azalning davomiyligini ifoda etadigan tushuncha. Diniy ta’limotga ko‘ra, azal va A.da ustuvor bo‘lish faqat Xudoga xos, qolgan barcha narsalar foniy, o‘tkinchi, ya’ni ular azal va A. o‘rtasidagina mavjud bo‘ladi. A. Allohning sifatidir. A. va azal ayri ma’nolarga ega bo‘lsa-da, ular ba’zan yonma-yon keladi. N. “H.A.”dagi avvalgi munojotda Allohning abad sifatini zikr qilib, uning azaldan bor bo‘lgani va abadiy bor bo‘lishini, avvalining ibtidosi va oxirining intihosi yo‘qligini ta’kidlab o‘tadi:

Ey sanga mabda’da abaddek azal,
Zoti qadiming abadiy lam’yazal.

Ne bo‘lub avvalda bidoyat sanga,
Ne kelib oxirda nihoyat sanga.

Azaldin behad oshib ibtidosi,
Abaddin asr-u toshib intihosi

N. umri A., umri jovidon, hayoti A. kabi so‘zlar orqali insonga beriladigan uzoq umrni, abadiy hayotni nazarda tutadi:

Dahr elidin go‘sha tutmoq bo‘ldi avlo o‘ylakim,
Tutmag‘ay ul qavm otin, topsa kishi umri abad…

Ey Navoiy, gar nasibingdur abad umre, kerak
Xotiringda yordin o‘zga tamanno bo‘lmasa.

N. ishq g‘amining nishini – dori va dardini – davo bilgan kishi yor vasliga yetib, abadiy hayotga ega bo‘lishini ta’kidlab o‘tadi:

Ul zindadil hayoti abad vasldin topar,
Kim nishi g‘amni no‘sh der-u dardni – davo.

N.ning A. so‘zi orqali, asosan, Allohga xos bo‘lgan abadiylik, barqarorlik, davomiylik sifatlarini hamda insonga tegishli bo‘lgan uzoq umr, abadiy hayot kabi tushunchalarni nazarda tutgani she’rlaridan anglashilib turadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик. 6-жилд. – Т., 2011; Навоий асарлари луғати. Тузувчилар: Порсо Шамсиев, Собир Муталлибов. – Т., 1972; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва табъироти ирфоний. – Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.); Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005; Комилов Н. Тасаввуф. – Т., 2009; Ҳаққул И. Занжирбанд шер қошида. – Т., 2021; Ҳаққул И. Касби камол ўзни танишдир. – Т., 2021.*

S.R.



ABAY (taxallusi; to‘liq nomi: Ibrohim Qo‘nonboyev) (1845–1904, Yettisuv) – oqin, taniqli qozoq shoiri va ma’rifatparvari. Qozoq yozma adabiyotining asoschisi. Adabiy merosi 200 dan ziyod she’r va 4 doston (“Iskandar”, “Mas’ud”, “Azim rivoyati”, “Vadim”) ni o‘z ichiga oladi. Krilov masallari, Lermontov she’rlaridan namunalar, Pushkinning “Yevgeniy Onegin” she’riy romanidan parchalar tarjima qilgan. U bastakor ham bo‘lgan, o‘z she’rlarini xalq kuylariga solib kuylagan, ularga o‘zi yangi kuylar ham bastalagan. Undan qolgan 20 ga yaqin kuy haligacha qozoq teatri repertuaridan tushmay kelmoqda. A. asarlari bir qator o‘zbek shoir va yozuvchilari, xususan, N.Fozilov va R. Musurmon tomonidan tarjima qilingan.

Qozoq shoirlari ichida N.dan eng ko‘p ta’sirlangan va uni o‘ziga ijod yo‘lida rahnamo, deb bilgan A.dir. U shoir asarlari b-n madrasadayoq tanishgan va 14 yoshida yozgan she’ridayoq N.ni o‘z ustozlari qatorida ixlos va iftixor b-n tilga olgan edi:

Fuzuli, Shemsi, Seyxali,
Navoiy, Sa’di, Firdousi,
Xoja Hafiz – bu hemmesi
Medet ber shag‘iri feriyad.

A. “Iskandar” dostonini yaratishda N.ning “S.I.”sidan ham ta’sirlangani va ilhomlangani ma’lum. N. ta’sirida ko‘plab barkamol she’rlar ham yaratgan. Qozoq xalqini ma’rifat va madaniyatga da’vat qilib yozilgan 44 lavhadan iborat “Naqliya so‘zlar” nasriy asarida ham “M.Q.”-ning ta’siri yaqqol sezilib turadi.

Mashhur qozoq adibi M.Avezov bergan ma’lumotga ko‘ra, u o‘g‘li Oqilboyga N.ning “S.S.” dostoni syujeti asosida “Jarroh” nomli asar yozishni topshirgan. Bu dalillar A. dunyoqarashi va ijodiy qiyofasining shakllanishi, badiiy mahoratining oshishida N.ning adabiy merosi hal qiluvchi rol o‘ynaganidan dalolat beradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Абай ўланлари. – Т., 1945; Абай Қўнонбоев. Танланган асарлар. – Т., 1961; Сильченко М.С. Абай (Очерки жизни и творчества). Алма-Ата, 1945; Сейданов Қ. Абай бадиияти. – Т., 1995; Фозилов Н. Абай Қўнонбоев // Абай Қўнонбоев. Танланган асарлар. – Т., 1961; Ражабова Б. Авлодимга сўз қолсин // Муштарак адабий ҳодисалар. – Т., 2019.*

E.O.

ABBOS UL-AHVAL – arab qabila boshliqlaridan biri. VI asrning ikkinchi yarmida yashagan. O‘sha davrda bir tomoni Vizantiya imperiyasi chegaralariga, bir tomoni Sosoniylar davlati chegaralariga tutash hududlarda bir nechta arab qabilalari yashagan. Vizantiya ham, forslar ham ularni o‘zlariga og‘dirishga harakat qilgan. Bu ikki imperiya o‘rtasidagi o‘zaro urushlarda arablar goh forslar tomonida, goh vizantiyaliklar tomonida turib ishtirok etganlar.

VI asrning oxirgi choragida sosoniylar davlatida ichki siyosiy ahvol murakkablashgan. 579-y.da Yevropa tarixchilari tomonidan Xusrav I, Sharq tarixnavislari tomonidan Anushervon, No‘shiravoni odil deb ataluvchi sosoniylar hukmdori vafot etib, o‘rniga o‘g‘li Hurmuz binni Anushervon (Yevropa tarixnavisligida Ormuzd IV deb ataladi) taxtga o‘tiradi. Lekin u otasining siyosatini davom ettira olmaydi. Mamlakat a’yonlari undan norozi bo‘lib, orada qarama-qarshilik yuzaga keladi. Buning oqibatida Hurmuz binni Anushervon hokimiyati zaiflashadi. Tashqi dushmanlar u-n bu juda qulay vaziyat edi va ular har tomondan Sosoniylar saltanatiga hujum qila boshlaydilar. Ular orasida A.A. ham bor edi. N. “T.M.A.”da bu haqida shunday ma’lumot beradi: “Agarchi avvallar Anushirvon qavoid va rusumin mar’iy tutti, ammo oz gunohg‘a ko‘p siyosat qilur jihatidin el andin mutavahhim bo‘ldilar... Chun el bir yo‘li navmid bo‘ldilar, atrofdin dushmanlar mulki tama’ig‘a yuz qo‘ydilar: Rumdin qaysar va arabdin Abbos ul-ahval, Mag‘ribdin Umar val-adraq va Turkistondin xoqoni Chin”.

Hurmuz bu ko‘p sonli dushmanlarga qarshi turolmasligini bilib, ular b-n kelishishga majbur bo‘lgan. Buning u-n u o‘z xazinasidan qimmatbaho sovg‘a va tortiqlar yuborgan. Ulardan uchtasi, ya’ni Rum qaysari, arab A.A. va Mag‘ribdan qo‘shin tortib kelgan Umar val-Adraq yuborilgan hadyalarga rozi bo‘lib, ortlariga qaytganlar va shu tariqa ish urush va qon to‘kishgacha yetib bormagan. “Burung‘i uchovni tuhfa va hadoya bila istirzo qilib qaytardi”, – deb yozadi N. bu haqda. Shundan so‘ng dushmanlardan faqat bittasi – xoqoni Chin qolgan va Hurmuzning lashkarboshisi Bahromi Cho‘bina uni bartaraf qilgan.

“A.A.” ismiga ahval so‘zining qo‘shilishi va Abbos ul-ahval deb atalishiga sabab uning bir ko‘zi g‘ilay bo‘lganidadir. Arab tilida ahval so‘zi g‘ilay, ko‘zi qiyshiq ma’nosini anglatadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Дьяконов М.М. Очерки истории древнего Ирана. – М., 1961; Грантовский Э.А. и др. История Ирана. – М., 1977; Эргашев Қ. Навоийнинг насрий услуби масалалари. – Т., 2022.*

Q.E.

ABDOL (ar. – badal qilish. Ko‘pligi bidl – sharif va karim. Chunki avliyoulloh xalqning aziz va mukarram tutgan kishilari bo‘lgani u-n A. deganlar. Yoki badil – biror narsaning badali: birbirining o‘rnini bosgani u-n bu toifa A. atalgan, bu so‘zlarning ikkalasi ham dunyo b-n aloqasini uzgan va Allohga bog‘lanib, avliyo toifasi davrasidan o‘rin olgan so‘fiy, qalandar ma’nosini anglatadi.) – o‘rinbosar, tariqat shayxlarining muayyan maqomga erishgan namoyandalari; moddiy borliqlarini ma’naviy borliqlariga badal qilgan darveshlar; avliyoulloh toifasidan bir guruh. Haq taolo go‘yo olamni ular vositasida boshqarib turadi. Ba’zilar ularni hafttan – 7 kishidan iborat pok va ezgu niyatli insonlar deb aytadilar. Ular olamning ma’naviy muhofizlari bo‘lib, 7 iqlimga rahnamolik qiladilar. Alloh taolo 7 iqlimni 7 A. vositasida idora qilar ekan. Avliyoullohdan 7 kishilik rijolni A. deydilar.

A. so‘zi ilk daf’a o‘rtaga chiqqan zamonlarda obid, zohidlar qatori muhaddis va faqihlarga nisbatan ham ishlatilgan. A.larning axloqi va ma’naviy fazilatlari deyarli barcha u-n o‘rnak bo‘lgan. Chunki ular ko‘ngil boyligi, ruh pokligi va insonlarga ko‘p yaxshilik qilishga alohida ahamiyat berganlar. A. – o‘zgalarning unga ko‘rsatgan yomonliklarini oson kechira biluvchi, qazo va qadarga ko‘ngil xushligi b-n bo‘yin eguvchi, haromdan qochib, ibodatlarni

chin ixlos va samimiyat ila bajaruvchi zot hisoblangan. A.lar kashf-u karomat va g‘ayritabiiy kuch sohiblari sifatida, ayniqsa, mashhur bo‘lganlar.

N. “N.M.”da bir necha A. haqida ma’lumot beradi. Abu Ja’far Somoniy haqida so‘zlaganda, “Ul debdurki, sayohatda Lubnon tog‘iga tushtum. Anda jamoatiy A. yo‘luqdilar”, – deydi. A. lar haqiqatda mehr-shafqat sohibi bo‘lganlari u-n hech bir jonzotga aziyat yetkazmaganlar. Shu ma’noda amirchayi safolfurush b-n bog‘liq mana bu so‘zlar ham e’tiborga molik: *“Shayx ul-islom debdur: mening otam hech jonivorni o‘lturmas erdi va bu abdol mazhabidur. Va alar abdoldin erdilar va karomat ahli”*.

O‘rta asr manbalarining ma’lumotiga ko‘ra, tasavvufning 356 nafar shunday buyuk namoyandalari mavjud bo‘lib, maqom va darajalariga bog‘liq ravishda mashoyixlar martabalari silsilasini vujudga keltiradilar va bu silsilada A. yoki hafttanlar alohida maqomga egadirlar. Birinchi iqlimga Ibrohim (a.s.), ikkinchisiga Muso (a.s.), uchinchisiga Horun, to‘rtinchisiga Idris (a.s.), beshinchisiga Yusuf (a.s.), oltinchisiga Iso (a.s.) va yettinchisiga Odam (a.s.) sohiblik qiladilar. Yahyo (a.s.) esa Iso (a.s.) b-n Horun (a.s.) o‘rtasida yurib, payg‘ambarlardan eshitgan haqiqatlarni 7 A. qalbiga naqsh aylab turar emish.

Ba’zi manbalarda A.larning 40 nafarligi aytiladi. “N.M.”da ta’kidlanishicha, Muhammad (s.a.v.) “Ummatimning abdollari 40 tadir. 12 tasi Iroqda va 28 tasi Shomda”, – deb aytganlar. “Allohning tanlagan birodarlari (Abdollar) bo‘lmaganida, Yer o‘z o‘qi ustidagi hamma narsani yutib yuborar edi”, – deb lutf etganlar. Chunki A.lar insoniyatga ziyon yetkazuvchi jami yomonliklarni ezgu ilohiy sifatlar vositasida badal qilganlar. “N.M.”da Shayx Ali Abdulhamid G‘azoyiriy, Zakariyo Yahyo Hiraviy, Xoja Qutbiddin Yahyo, Darvesh Muhammad Chargar, Shayx Mirchai Safolfurushlarning A.lardan ekani, tasavvufda yuksak daraja va hol sohibi, karomat ahli bo‘lgani haqida ma’lumot beriladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва табъироти ирфоний. – Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.); Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005; Қисаси Рабғузий. 2-китоб. – Т., 1991; Шайх Нажмиддин Кубро. Тасаввуфий ҳаёт (И.Ҳаққул, А.Бектош тарж.). – Т., 2004; Исҳоқова З. Тасаввуф таълимотида орифлик ва валийлик талқини. – Т., 2011; Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. – Душанбе, 1987; Зарринкўб А. Жустужў дар тасаввуфи Эрон. – Душанбе, 1992; Комилов Н. Тасаввуф. – Т., 2009.*

I.H., E.O.

ABDULAZIZ ABHARIY (to‘liq ismi: Xoja Imodiddin Abdulaziz Abhariy; Mavlonozoda Abhariy nomi b-n mashhur bo‘lgan) – N.ning lutf-u marhamatidan bahramand bo‘lib, uning tarbiyatida kamol kasb etgan olimlardan. Hanafiylik, shofe’iylik fiqhi va hadis ilmida tengsiz edi. N.ga bag‘ishlab “Sharhi Mishkot” asarini yozgan. Uzoq yillar otasi o‘rnida Shohrux Mirzo madrasasi, Sultoniya madrasi va Ixlosiya xonaqohida talabalarga dars bergan. Hindistonga ketib, Sind viloyatida olamdan o‘tgan.

“M.N.” tazkirasida N. uni Hofiz Sharbaytiy zikrida “shahrning muftisi va rindvash kishi erdi”, deya tilga oladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985; Ғиёсиддин Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Т., 2015; Алишер Навоий. Қомусий луғат. – Т., 2016.*

E.O.

ABDUVALID AHMAD BIN ABI RIJO (t.y.n., ammo N.ning “N.M.” tazkirasida yozishicha, vafot etgan yili hijriy 202-y.ga to‘g‘ri keladi.) – olim, muhaddis, shayx. “N.M.” tazkirasida tilga olingan va alohida fiqra bag‘ishlagan 770 nafar shayxdan biri. A.A.B.A.R. Imom Ahmad Hanbal (r.a.)ning iste’dodli shogirdlaridan bo‘lgan. Imom Buxoriy “Sahihi Buxoriy” hadislar

to‘plamida undan hadislar rivoyat qilgan. Olim o‘z davrining mulkdori bo‘lgan, ammo qo‘lidagi bor mol-mulkining bir qismini hadis o‘rganish, to‘plash va haj talabida, qolganini esa g‘azot u-n sarflagan. Uning ayrim muhtoj do‘stlariga beminnat yordam bergani to‘g‘risida ham xabarlar bor.

N. ijodida Imom Buxoriyning sharafli nomi va “Sahihi Buxoriy” kitobi faqat “Abduvalid Ahmad b. Abi Rajo” fiqrasida tilga olingan.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Ражабова Б. Имом Бухорий ва Алишер Навоий. Муштарак адабий ҳодисалар. – Т., 2019.*

B.R.

ABDULVAHHOB IBN ABDULMAKORIM AL-HIJOZIY (XVI asr) – xattot. Buxoro xattotlik maktabining namoyandalaridan, nasx va nasta’liq xatida yozgan. “X.” va “L.T.”ni ko‘chirgan. Kotib 1-doston so‘nggida “Abdulvahhob al-Hijoziy”, 2-doston so‘nggida “Ibn Abulkorim Abdulvahhob”, 3-doston so‘nggida “Abdulvahhob” deb imzo qo‘ygan. Demak, kotibning to‘la ismi “Ibn Abulmakorim Abdulvahhob al-Hijoziy” ekani ma’lum bo‘ladi. 5-doston so‘nggida kitobat sanasi qilib, 988 hijriy 2-rabi’ ul-avval (mil. 1580) qayd etilgan. Qo‘lyozmaning nafis xattotlik, kitobat va miniatyura san’ati b-n ziynatlanganiga qaraganda, Buxoroda ko‘chirilgan deb taxmin qilish mumkin. A.I.A.H. ko‘chirgan “Xamsa” dostonlari u-n 18 ta miniatyura ishlangan.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-жилдлар. – Т., 2011; Садри Зиё. Тазкират ал-хаттотин. ШИ-1, № 1304/III; Муродов А. Марказий Осиё хаттотлик санъати тарихидан. – Т., 1971; Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. – Т., 1991; Т.: ЎзР ФАШИ инв. 2630.*

Muh.A.

ABDULVOSE’ JABALIY (taxallusi; to‘liq ismi: Badiuzzamon Fariduddin ibni Umar ibni Rabe’i G‘urjistoniy (t.y.n. − Hirot, 1160) – fors-tojik shoiri. Hirotda tahsil olib, keyin G‘azna va Marv shaharlarida yashab ijod qilgan. Zullisonayn shoir bo‘lib, arab va fors tillarida qalam tebratgan. A.J. devoni qasida, g‘azal, qit’a, ruboiy kabi janrlardagi she’rlarni o‘z ichiga oladi. Adabiy merosida masnu’ she’rlar ham ko‘zga tashlanadi. Uning maktub va insholaridan iborat nasriy risolalari ham mavjud. Devoni Tehronda nashr etilgan. N. “M.Q.”da uni majoziy muhabbat kuychilari guruhiga kiritadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик. 9-жилд. – Т., 2011; Муҳаммад Авфий. Лубоб ул-албоб. – Теҳрон, 1361 (ҳ.-ш); Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилди 1. – Душанбе, 1988.*

M.A.

ABDULVOSE’ MUNSHIY (XV asr) – olim, shoir, xattot. Insho san’atida mohir, hazil-mutoyibaga moyil bo‘lgan. Jomiy (“Bahoriston”) asarida A.M.ning “Chor dar chor” qasidasini ta’riflab, unga hech kim javob yoza olmaganini aytsa, Vosifiy “Badoye’ ul-vaqoye’” asarida A.M. Majddiddin Muhammadning N. sharafiga Hirot yaqinidagi Barze’ bog‘ida bergan ziyofatida ishtirok etgani va hozirjavobligi b-n N. tahsiniga sazovor bo‘lganini ta’kidlab o‘tadi.

N. “M.N.”ning 6-majlisida uning insho fanida mohir bo‘lgani, nihoyatda xushchaqchaq odam ekanidan hazilkashlar u b-n mutoyiba qilishsa, yoqimli kuyinishlar izhor etar, bu esa yana hazilga sabab bo‘lishini yozadi. A.M.ning Majddiddin Muhammad haqida 500 baytli, boshqalar haqida 1000 baytli hajviya bitganini aytadi: *“...insho fanida mohir, bag‘oyat sabukruh kishidur... Zurafo aning birla mutoyiba ko‘p qilurlar. Ul shirin iztiroblar qilurki, yana mu’jibi hazl bo‘lur... Bu matla’ aningdurkim*:

Ey kashida turki chashmat
dar kamon payvasta tir,
Mohi nav gasht az kamoni
abro‘vonat go‘shagir”.

N. tavsiyasi b-n (Jomiy vafotidan keyin) A.M. “Manoqibi Nuriddin Abdurahmon Jomiy” asarini yozgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; ЎзМЭ. 1-жилд. – Т., 2000; Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Т., 2015; Болдырев Н. Навои в рассказах современников. Сб. Алишер Навои. М.–Л., 1986; Бертельс Е.Э. Наваи и Джами. – М., 1965.*

Muh.A.

ABDULJAMIL KOTIB (t.y.n. – vafoti 1505, Hirot) – xattot. Hirotda tug‘ilib, ona shahrida tahsil olgan. Nasta’liq xatini yozishda juda mohir bo‘lgan. Kotiblik A.K.ning asosiy mashg‘ulotlaridan biri bo‘lgani u-n ham ko‘chirgan qo‘lyozmalarining oxirida o‘z nomiga “kotib” taxallusini qo‘shib “Abdul Jamil kotib” tarzida qayd etadi. “Ravzat us-safo” asarida xabar berishicha, “Abduljamil Hirotning Sultoniya madrasasida mudarrislik qilgan, arab tili sarf-u nahvidan dars bergan. U ko‘chirgan qo‘lyozma xatolardan xoli, eng yaxshi nusxadir”. Muhammad Rizo Ogahiy “Ravzat us-safo”ni o‘zbek tiliga tarjima qilar ekan, A.K.ni shunday ta’riflaydi: “Mavlono Abduljamil donishmandlar silkida intizom topib, bir necha vaqt “sultoniya” madrasasida donish qalami b-n ilm ahli va talabalarning ko‘ngillari sahifasiga ifoda naqlini yozdi. Tarixi hijriy 911 hijriy (1505 mil.) yil edikim, vafot ittifoq tushibdi...”

Uning qo‘li b-n 1485-y.da ko‘chirilgan N. “X.”si O‘zR FA Sharqshunoslik institutida saqlanadi (inv. № 5018, 325 va raqam o‘lchovi 19x27,5 sm). A.K. N.ning shaxsiy kotibi bo‘lib, “X.”ning bitgan dostonlarini peshma-pesh ko‘chirib borgan. Bu qo‘lyozma n.shunoslikda “X.”ning to‘ng‘ich nusxasi, A.K. ko‘chirgan nusxa deb yuritiladi. “X.”ni o‘rganish va uning ilmiy-tanqidiy matnini tuzishda u eng ishonchli nusxa sanalib kelmoqda. Lekin bu nusxalar davomida urinib, ayrim yo‘qolgan varaqlari yangilangan: boshidan 9, oxiridan 3 varaq noma’lum kotib tomonidan ko‘chirilib to‘ldirilgan. 305, 306 va 319-varaqlarni esa 1949-y.da mashhur xattot A.Murodiy ko‘chirib, qayta tiklagan.

A.K. 1487–1488-yy.da “N.N.” devonini ham ko‘chirgan (inv. № 11675, 149 varaq). A.K. N. g‘azallarini uzoq yillar davomida kitobat qilish jarayonida uning she’rlari (ko‘proq g‘azallari) dan eng yaxshi baytlarini tanlab olib, bir to‘plam tuzgan. “Tuhfat us-salotin” (“Sultonlarga tuhfa”) deb atalgan bu to‘plam 408 baytni o‘z ichiga olib, 45 tuhfadan iborat: ularda shoir baytlari mavzularga ko‘ra ajratiladi – “Xavos va avom nasihatida”, “Davron ahlining bevafoligida”, “Yor shikoyatida”, “Mahbub ta’rifida” va h.k. A.K. to‘plamni Husayn Boyqaroga taqdim etgan va uning maslahati va tavsiyalariga ko‘ra yanada mukammallashtirgan. U to‘plamga muxtasar muqaddima ham yozgan. Uni 1508–1509-yy.da Hasan Jum’on Ansoriy ko‘chirgan. “Tuhfat us-salotin”ning muqaddimasida kotib umri davomida N. asarlarini kitobat qilish b-n shug‘ullangani haqida shunday deydi: “Arz ulkim, faqiri haqir Abdu Jamil kotib ... hamisha muqarrab ul-hazrati Sulton (ya’ni, N.) balog‘at bobida yakqalamlik sadosin sipehr munshisidin oshurubtur, kulliyotlarini kitobat qilib mahzuz (zavqlanardim) bo‘lur erdim...”. Muqaddimadagi so‘zlarga diqqat qilinsa, u N. kulliyotining hozirgacha noma’lum bo‘lib kelayotgan nusxalaridan birini ham ko‘chirgani ma’lum bo‘ladi.

Britaniya muzeyida saqlanayotgan bu to‘plam haqida dastlab ingliz sharqshunosi Ch.Riyo xabar bergan edi. To‘plam P.Shamsiyev tomonidan nashrga tayyorlanib, S.G‘aniyeva uni chop ettirgan.

Sulton Ibrohim Aminiy ismli shoir A.K. vafotiga qit’a-tarix yozgan:

Afso‘s, az on sipehri donish,
Ki zi mehr o‘ro sutud ofoq.

Z-on Abduljamil gasht nomash,
K-orosta shud az husni axloq.

Ta’rixi vafoti o‘ xirad guft:
“Allomai bemisoli ofoq”.

Tarj.: U ma’rifat osmoni bo‘lib, dunyo uni mehr b-n siylagan edi. Husni axloq b-n bezangani jihatidan nomi Abduljamil bo‘lgan edi. Aql uning vafoti ta’rixini “Dunyoning tengsiz allomasi edi”, deb aytdi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-жилдлар. – Т., 2011; Абдулжамил Котиб. Туҳфат ус-салотин. – Т., 2007; Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. – Т., 1991; Норқулов Н. Темурийлар даври маданияти тарихидан лавҳалар. – Хоразм, 1996; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988; Муҳаммад Шариф Садри Зиё. Тазкират ал-хаттотин. ШИ-1, № 1304/III. – B. 67-97;* میرخواند. روضة الصفا. ۷-جلد .*; Хондамир, Равзат ус-сафо, 7-дафтар;*. ۰۱ .۵۴۳۱ .على اکبر دهخدا. لغتنامه. تهران؛ *10-жилд. 15498-б.; Муродов А. Марказий Осиё хаттотлик санъати тарихидан. – Т., 1971.*

E.O., Muh.A.

ABDULLO MARVARID (taxallusi; to‘liq ismi: Xoja Shahobiddin Abdullo bin Muhammad Kirmoniy (t.y. noma’lum, Kirmon – 1516, Hirot) – N. davrining mashhur xattoti, insho san’atining peshqadam namoyondasi, shoir, musiqaning mohir ijrochilaridan biri. Otasi kirmonlik. A.M. haqida N. “M.N.” tazkirasida quyidagilarni yozadi: “Xoja Abdullo Sadr – Xoja Marvarid o‘g‘lidurkim, muddati nazorat devonida muhr bosar erdi va o‘zi ixtiyori birla istig‘vor qilib, ofiyat kunji ixtiyor qildi. Bu toifadan anga muyassar bo‘lg‘ondek oz kishiga bo‘lmish bo‘lg‘ay. O‘zi kichik yoshida ulum kasb qildi. Advor va musiqiy ilmida va xutut fanida benazr bo‘ldi. Va qonunni, ma’lum emaskim, hargiz kishi andoq cholmish bo‘lg‘ay. Va podshoh xizmatida oliy mansabqa sarfaroz bo‘ldi. Ul jumladin biri sadoratdur. Va insho fanini ham kamolg‘a yetkurdi. Va o‘zi yaxshi muhovaraliq va yaxshi xulqluq va yaxshi suhbatliq yigitdur”. Xattotlikda A.M.ni tan olmagan kishi bo‘lmagan. Z.M.Bobur uni “ta’liq” xatining ustasi desa, boshqa birovlar “suxs” xatida mahorati zo‘r edi, – deydilar. Davlatshoh Samarqandiy ta’rificha, “uning yozgan xatlari tovusning rang-barang patlariday chiroyli, har bir haryai yoqutday dona-dona” bo‘lgan. Musiqa sahasida u qonunni mohirlik bilan chalgan. Zayniddin Vosifiy “Badoye’ ul – vaqoye’” asarida xabar berishicha, A.M. Navoiyning “Din ofati ul mug‘bachayi mohliqodir” deb boshlangan mustazodiga kuy bastalagan va Hirotda bu qo‘shiq sevib aytilgan.

A.M. she’rida “Bayoniy” taxallusini qo‘llagan. Manbalarda uning 2 ming baytga yaqin she’r yozgani xabar qilinadi. Uning she’riy devoni, tugallanmay qolgan “Xusrav va Shirin” kabi dostonlari ham bo‘lgan. Mashhur tazkiranavis Som Mirzo o‘zini A.M.ning shogirdi hisoblangan.

A.M.ning adabiyot va madaniyat tarixidagi eng katta xizmatlaridan biri uning tarqoq holda yotgan turli-tuman tarixiy hujjatlarni, shoh ko‘rsatmasiga ko‘ra o‘zi tuzgan shohlik farmonlarini to‘plab “Munshoat” tuzganidir. A.M.ning bu asari “Manoqib”, “Insho”, “Tarassul”, “Sharafnoma” deb ham yuritiladi. 1901-y.da bu asar Vissbadenda, 1952-y.i uning foto-maksimilye G.Ryomer tomonidan nashr ettirildi. A.M.ning bu asaridagi ayrim hujjatlar N. biografiyasi va faoliyatiga ham aloqadordir. Shu jumladan, “Hazrat Amir Alisher Navoiyga haj safari munosabati bilan berilgan nishon” ham shu to‘plamdan joy olgan. Abu Rayhon nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida bu asarning bir necha qadimiy qo‘lyozma nusxalari bor. A.M. “Tarixi Shohiy” degan tarixiy asar ham yozgan. Lekin u bizgacha yetib kelmagan. Vosifiy yozishicha, A.M. Navoiy g‘azallariga kuylar ham bitgan.

Sulton Husayn Boyqaro vafotidan keyin A.M. ma’lum vaqt safaviylar xizmatida bo‘lgan. Uning 1516-yy.da vafot etganligi taxmin qilinadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Абдулло Марварид. Шарафнома. – Висбаден, 1901;*

Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобирнома. – Т.,1960; Юнусхўжаева М. Абдулло Марварид. – Т.,1979.

Ab.H.

ABDULLA TO‘QAY (1886–1913) – tatar shoiri, publitsist. 1902-y.dan she’rlar yoza boshlagan. A.T. tatar adabiyotida tanqidiy realizm, bolalar adabiyoti, zamonaviy tatar adabiy tilining asoschilaridan biridir. Tataristonda A.T. nomidagi respublika davlat mukofoti ta’sis etilgan. Uning vafotiga bag‘ishlab, Tavallo, A.Avloniylar she’rlar yozishgan. Shoir she’rlari 1913-y.dan o‘zbek tiliga tarjima qilinib, darsliklarga kiritilgan. A.T. Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg‘oniy, N. asarlarini puxta o‘rgangan va she’rlarida bu ta’sir ochiq ko‘rinadi. Hatto N. g‘azallariga muxammaslar ham bog‘lagan.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Абдулла Тўқай. Танланган асарлар. – Т., 1961; Турдиев Ш. Абдулла Тўқай ва ўзбек адабиёти // “Жаҳон адабиёти” журнали, 2011 йил, 4-сон.*

Z.R.

ABDULLAYEV Ahmad – f.f. d-ri., adabiyotshunos olim, adib. U, asosan, XI–XII asrlar forsiy she’riyat taraqqiyoti, lirik janrlarning shakllanishi, adabiy uslublarning qaror topish jarayonlari, g‘aznaviylar va saljuqiylar davri shoirlari ijodi bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan.

A.A. N. va fors-tojik adabiyoti, N.ning forsiy merosi, ustozlari va zamondoshlari, N. va tasavvuf, N. va adabiy ta’sir masalalari bo‘yicha tadqiqotlar olib borib, bir qator maqolalar e’lon qildi: “Nasim ul-xuld” qasidasida irfoniy g‘oyalar”, “Navoiyning “Yoz” qasidasida tabiat tasviri va ijtimoiy ohanglar uyg‘unligi”, “Navoiyning to‘rt ustozi”, “Alisher Navoiyning “Ey ko‘ngil” g‘azalining an’anasi”, “Navoiy va masnu’ she’r”, “Navoiy va Mavlono Burhoniddin” va h.k. Olimning Sharq adabiyoti va falsafasiga oid bo‘lgan ushbu maqolalari forsiy va turkiy adabiyot qiyosi asosiga qurilgani, teran ilmiy tahlillar va nazariy umumlashmalarga boyligi b-n alohida qimmatga ega. U har bir adabiy hodisa va badiiy yangilikni Sharq mumtoz so‘z san’ati mezonlari asosida baholaydi. Olim N. hayoti va ijodi b-n bog‘liq mazkur maqolalarining barchasini to‘plab, “Navoiy haqida yigirma ikki maqola” nomi ostida alohida kitob holida e’lon qildi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Абдуллаев А. Тасаввуф ва унинг намояндалари. – Т., 2009; Абдуллаев А. Навоий ҳақида йигирма икки мақола. – Т., 2011; Йўлдошев Н. Бердимуродова М. Аҳмад Абдуллаев // ЎТА, 2007, №1; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд. 1. – Душанбе, 1988.*

E.O.

ABDULLAYEV Vohid Abdullayevich (15.5.1912. – Samarqand – 1985.30.7 – Moskva) – f.f. d-ri (1959), prof. (1960), akad. (1966), O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi (1973). 1912-y. 15-mayda Samarqandning Chorraha mavzesida tug‘ilgan. Dastlab Samarqand shahridagi eski maktabda talim oladi, 1920–1927-yy. da Alisher Navoiy nomidagi yangi usulda ish ko‘ruvchi ta’lim dargohini tamomlaydi. 1927–1930-yy.da Samarqand shahridagi ta’lim-tarbiya texnikumida, 1930–1932-yy.da Farg‘ona davlat pedagogika institutining ijtimoiy-adabiyot bo‘limida o‘qiydi. A.V.A. talabalik yillarida Farg‘onadagi Xotin-qizlar fakultetida ona tili va adabiyot fanidan muallimlik qiladi. Dastlab Moskvada, so‘ngra Toshkentda aspiranturada o‘qiydi hamda Toshkentda joylashgan Respublika o‘qituvchilar malakasini oshirish institutida adabiyotdan dars beradi (1933–1935). A.V. 1935–43-yy.da Buxoro va Samarqand pedagogika institutlarining, 1944–69-yy.da Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti O‘zbek adabiyoti

kafedrasi mudiri, 1963-y.dan umrining oxiriga qadar shu universitet rektori vazifasida faoliyat yuritgan.

1941-y.da “Alisher Navoiy hayoti va ijodining Samarqand davri” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini, 1959-y. Bokuda “O‘rta asrlarda Xorazmda o‘zbek adabiyoti” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini (ikki jilddan iborat) himoya qilgan. Bu tadqiqot ishi to‘ldirilib, “O‘zbek adabiyoti tarixi” nomli darslik yaratilgan va 1964, 1967, 1980-yy.da qayta nashr etilgan. A.V.A. ijod b-n ham shug‘ullanib, bir qator, jumladan, “Samarqand sayli”, “Bedor qo‘shiqlar” kabi she’riy to‘plamlar nashr ettirgan. “Navoiy Samarqandda” (1948), “Abdurahmon Jomiy Samarqandda”, “Navoiy va Bobur”, “Muhammad Sulaymon o‘g‘li Fuzuliy”, “Nishotiy va uning “Husni Dil” dostoni”, “Xoksor va uning “Muntaxab ul-lug‘ot” kitobi” (1955), “Nishotiy va Xoksor” (1960), “Nasimiy va o‘zbek adabiyoti”, “O‘zbek adabiyoti tarixi” (1964), “Asrlar nafasi”, “Saylanma” (1982), “Miriy va uning zamondoshlari” (B.Valixo‘jayev b-n hamkorlikda) kabi qator asarlari o‘zbek adabiyoti va adabiyotshunosligi masalalariga bag‘ishlangan. A.V.A.ning to‘rt yuz ellikka yaqin ilmiy risola, she’riy va nasriy asarlari, ilmiy va ommabop maqolalari (250 dan ortiq) chop etilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Sulaymonov I. Adabiyot ilmining allomasi – Vohid Abullayevni eslab // 06.05.2021; Xusainov A., Axmedova Sh., Xamroyev A. Ustozlar yodi barhayot // www.buxdu.uz; ЎзМЭ. 1-жилд. – Т., 2000.*

M.X.

ABDULLAYEV Ismatulla (1927-y., Namangan – 2005) sharqshunos olim, f.f.d-ri (1974), prof., O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi (1989), Abu Rayhon Beruniy nomidagi davlat mukofoti sovrindori (1989). A.I. manbashunos va matnshunos sifatida 20 dan ziyod kitoblar muallifi. Uning As-Saolibiy haqidagi tadqiqotlari, “Yatimat-dahr-fi-mahosin-ahl-al-asr” kitobining o‘zbekcha va ruscha tarjimalari arabshunoslikka muhim ulush bo‘lib qo‘shilgan. Shuningdek, A.I. Mashrabga nisbat berilgan “Mabdayi nur”, “Kimyo” nomli asarlarni, shoir Xilvatiy devonini nashrga tayyorlagan. U arab adiblari Abdurahmon al-Xomisiy, Abdurahmon Sharqiy, Usama ibn Munqiz asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. A.I. 300 dan ziyod ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalarning muallifi. Ulardan “Ulug‘ mutafakkir ijodida arab adabiyoti”, “Navoiy va arab adabiyoti” maqolalarida bevosita N.ning arab tili va adabiyotiga munosabati, “H.A.” maqolat va hikoyatlarida Qur’on oyatlarining izi va ta’siri tahlil qilingan.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Мўмин Ҳошимжонов. Бобораҳим Машраб ҳаёти ва ижодий фаолияти. – Т., 2007; Абдуллаев И. Абу Мансур ас-Саолибий. – Т., 1992; Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1-жилд. – Т., 2000; Ҳомидий Ҳ., Маъмуров М. “Наманган адиблари”. – Т., 2007; Абдусаттор Жуманазар. “Мабдаи нур” ва калаванинг икки учи. Ўзбекистон адабиёти ва санъати газетаси. 2010 йил 36-сон.*

H.H.

ABDULLAYEV Fattoh (1914, Jambul – 1985, Toshkent) – tilshunos olim, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, f.f. d-ri, prof. “XV asr o‘zbek adabiy tilining dialektal asoslari masalasi” maqolasida N. tili asosida turli o‘zbek shevalari yotishini isbotlab, Boburning *“... Andijon elining lafzi qalam bila rostdur, aning uchunkim Alisher Navoiyning musannifoti bovujudkim Hirida nash’u namo topibdur, shu til biladur*” fikriga haqli ravishda e’tiroz bildirgan. “M.L.” asari olim fikrini tasdiqlaydi. N. asarlari tili asosida o‘g‘uz, qipchoq shevalariga kiruvchi juda ko‘p urug‘ tillari yotadi. Bu urug‘lar shoir

asarlarida qayd qilingan. A.F. “Navoiy asarlari tilida unli tovushlar uyg‘unligi masalasiga doir” maqolasida o‘zbek tilida singarmonizm qonuniyati buzilishi N. davridan boshlanganiga ko‘plab misollar keltirgan. Aslida bu b-n olim XV asrda singarmonizm yo‘qligini ta’kidlagan.

Ad.: *Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; XV аср ўзбек адабий тилининг диалектал асослари масаласи // Навоий ва адабий таъсир масалалари. – Т., 1963.*

E.U.

ABULBASHAR – Odam Ato, insoniyatning otasi. Odam (a.s.)ning laqabi, chunki odamzod nasli undan boshlanadi. “Odamning kuniyati Bulbashardur va laqabi Safiyullohdur”, – deb yozadi bu haqda N. “T.A.H.” asarida.

Tasavvuf falsafasiga ko‘ra, Muhammad (s.a.v.) nuri olam va odam yaratilmasdan burun ham bor edi. Chunki Alloh taoloning olamni ham, odamni ham yaratishidan maqsadi – Muhammad (s.a.v.) bo‘lgan. Binobarin, Muhammad (s.a.v.) garchi jismonan Odam (a.s.)dan keyin tug‘ilib, insoniyatning otasi sifatida unga farzand maqomida bo‘lishiga qaramay, nur sifatida undan avval yaratilgan. Shuning u-n ham N. bir baytida: “Agarchi Abulbashar, ya’ni bani basharning otasi barcha otalarning otasi bo‘lsa ham Abulqosim – Qosimning otasi, ya’ni Muhammad (s.a.v.) hech qanday shak-shubhaga o‘rin qoldirmay, uni o‘zining farzandi ekanligini ta’kidladi”, – deb yozgan edi:

Turfa bukim, Bulbashar keldi atolarg‘a ato,
Lek Bulqosim dedi farzand ani bevahm-u bim.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Сажжодий. Фарҳанги истилоҳот ва таъбироти ирфоний. – Теҳрон, 1370 (ҳ.-ш.); Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005; Фарҳанги забони тожики. Жилд 1. – М., 1969; Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. – Душанбе, 1987; Комилов Н. Тасаввуф. – Т., 2009.*

E.O.

ABUL MUHSIN MIRZO (1427, Hirot – 1450, Samarqand) – temuriy hukmdor. 1448-y. da qisqa muddat Hirot taxtida, 1450-y. Samarqand taxtida o‘tirgan. A.M.M. Ulug‘bek Mirzoning katta o‘g‘li, Ulug‘bek esa Shohrux Mirzoning to‘ng‘ich farzandi.

A.M.M. shaxsiyatida qat’iyat, jasurlik bo‘lgan. U harbiy sohada ham uquvli edi. Tarixchilar Ulug‘bek va A.M.M.ning Tarnob jangida Alouddavla ustidan g‘alaba qilishida A.M.M.ning jasorati va salohiyati asosiy omil bo‘lganini qayd etganlar. Uning bu xususiyatlari otasiga qarshi harbiy harakatlar davomida, shuningdek, uning qisqa muddatli hukmronligi vaqtida ham namoyon bo‘lgan. Lekin, afsuski, shahzodaning tabiatidagi salbiy jihatlar, eng avvalo, hokimiyatparastlik va shafqatsizlik undagi qobiliyat va salohiyatning to‘la namoyon bo‘lishiga yo‘l qo‘ymagan va oxir-oqibatda uni halokat sari yetaklagan.

A.M.M. boshqa temuriy hukmdorlar singari ilm-fanga, adabiyotga qiziqqan va she’rlar yozgan. Manbalarda uning astronomiyaga ishtiyoqi bo‘lgani, diniy masalalardan ham xabardor ekani qayd etilgan. N. A.M.M. mirzoning shaxsiyati va faoliyatini tilga olgan. “M.N.” tazkirasining 7-majlisida N. A.M.M. haqida ma’lumot beradi. Buyuk shoir uning shaxsiyatini salbiy baholaydi, otasini o‘ldirganini qoralaydi. *“Mavdoyi mizoj va vasvasiy tab’ va havonasor kishi erdi... O‘tar dunyo maslahati u-n donishmand va podshoh otasini o‘lturti. Har oyinakim, saltanat Sheruyaga jafo qilg‘oncha anga qildi. Ammo tab’i nazm erdi va she’rni obdon aytur erdi”*, deb yozadi. N. bu yerda A.M.M.ni Eron shohi Xusrav Parvizning o‘g‘li Sheruyaga o‘xshatadi. Sheruya saltanatni egallash u-n o‘z otasini o‘ldirgan va taxtga chiqqach, 6 oygina hukmronlik qilib, qatl etilgan edi, ayni paytda she’riyatdagi iqtidori va qobiliyatini e’tirof etadi hamda ijodidan namuna sifatida quyidagi baytini keltiradi:

Bar dil-u jon sad balo az yak
nazar ovard chashm,
Chun bigo'yam shukri in,
yo Rab, nabinad dard chashm.

Tarj.: Ko'z bir qarash b-n dil va jonga yuz balo keltirdi, buning shukrini qilar ekanman, yo Rab, (shu) ko'z dard ko'rmagay (deyman).

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Абдураззоқ Самарқандий. Матлаъ ас-саъдайн ва мажмаъ ал-баҳрайн. 2-жилд. – Т., 2008; Эргашев Қ. Алишер Навоийнинг насрий услуби масалалари. – Т., 2022; Асадов М. Соқийнома: тарих ва поэтика. – Т., 2020.*

Q.E.

ABDULLOYEV Olimjon (1978-y.da tug'ilgan) – n.shunos, f.f.n. (2015), dotsent (2016), shoir. A.O.ning ilmiy ishlari o'zbek-tojik adabiy aloqalari, N. asarlarining fors-tojik shoirlari asarlari b-n muqoyasaviy tahlili masalalariga bag'ishlangan. Nomzodlik ilmiy tadqiqoti ham "Alisher Navoiy va Amir Xusrav Dehlaviy "Xamsa"larining qiyosiy tadqiqi" deb nomlanadi. Unda N.ning Amir Xusrav ijodiga munosabati, ikki ulug' shoirning g'azal, qasida, masnaviy va dostonlari qiyoslanib, ular ijodidagi an'ana, yangilik va badiiy mahorat ko'rsatib berilgan. A.O.ning tadqiqotlari N. ijodini fors-tojik adabiyoti b-n qiyoslab, tadqiq etish jihatidan ahamiyatlidir.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-жилдлар. – Т., 2011; Амир Хусрав Деҳлавий ва Амир Алишер Навоий. – Хўжанд, 2011; Адабиёт. 8-синф учун ўқув қўлланмаси (ҳаммуаллифликда). – Хўжанд, 2015; Адабиёт. 11-синф учун ўқув қўлланмаси (ҳаммуаллифликда). – Хўжанд, 2015; Шеърий тўпламлари: Мезон. – Хўжанд, 2012; Нигор. – Хўжанд, 2014.*

Sh.R.

ABDULLOH Ro'yin (1955 – Afg'oniston, Qunduz,) – filolog, n.shunos olim. Qunduzdagi diniy madrasada ta'lim olgan, arab, fors, turk tillarini o'rgangan. Davriy nashrlarda jurnalist, Mozori Sharif shahridagi O'zbek madaniy markazi boshlig'i sifatida faoliyat yuritgan. Afg'onistonda N. asarlarining nashr etilishida A.R.ning xizmatlari katta. Ko'p yillik izlanish, tinimsiz mehnati natijasida olim 2014-y. ga qadar N. asarlarining 23 tasini nashr qilgan, arab tiliga o'girgan. Mazkur asarlar, asosan, Kobuldagi "Amiriy", Mozori Sharifdagi "Sultoniy" va boshqa nashriyotlarda ming nusxadan chop etilgan. Olim nashrga tayyorlashda O'zbekistondagi kirill yozuvida chop bo'lgan nashrlardan va qo'lyozma nusxalardan ham qiyosiy foydalangan. Muntazam ravishda O'zbekistondagi n.shunoslar b-n ilmiy hamkorlik olib boradi. Toshkent, Navoiy shaharlaridagi anjumanlarda ma'ruzalari b-n ishtirok etgan. A.R.olima S.G'aniyevaga Afg'onistondagi N. asarlarining to'qqizta nashrini tuhfa etadi. Mazkur nashrlar xususida ma'lumot bergan olima "Majolis" matni Navoiy 20 jildligi 13-jildda berilgan matn b-n emas, Faxriy Hirotiy va Muhammad Qazviniyning forsiycha tarjimalari matniga qiyos qilingan. Izoh-havolalar ham mazkur tarjimalar noshiri Ali Asqar Hikmat kitobidan olingan. Matn oxirida ham "Uch nusxa orasidagi farqlar" jadvali asl nusxa – Hirot qo'lyozmasi va tarjimalar asosida berilgan"ini qayd etadi (74). Hozirda N. asarlarining ilmiy-tanqidiy matnlarini yaratishda o'zbek olimlari A.R. tayyorlagan nashrlardan ham foydalanishmoqda.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ғаниева С. Афғонистонда Навоий асарлари нашри // Абадият гулшани. – Т., 2011; Азизуллаҳ Арал. Навоий ўзига қўйган ҳайкални бузиб бўлмас ёхуд Афғонистондаги навоийшунослик тарихи // "Марказий Осиё ренессанси" журнали. – Т., 2023.*

S.O'.

ABDULLOH XOTIFIY (1454, Jom – 1521, Hirot) shoir, xamsanavis, Jomiyning jiyani. N. “M.N.”ning 3-majlisida A.X.ga alohida maqola bag‘ishlaydi. A.X., – deb yozadi N., – Jomiy qarindoshi esa-da, ma’naviyatda undan yiroqdir. A.X. Firdavsiy “Shohnomasi”, Nizomiy “Panj ganji” va Xusrav Dehlaviyning “Xamsa”sini pisand qilmas ekan. Jomiy masnaviylarini ham deyarli mensimagan. N. A.X.ning “Temurnoma” dostonini “Zafarnoma” deb ataydi va undan uch bayt keltiradi. 1491-y.da A.X.ning “Xamsa”sida – “Layli va Majnun”, “Shirin va Xusrav”, “Haft manzar”, “Temurnoma” dostonlari yaratilgan edi.

N. A.X. haqida “She’ri el orasida bag‘oyat mashhur va rivoji nomaqdur” deb yozadi.

A.X. “L.M.” dostonining 7-bobida N. ta’rifida to‘xtaladi va uning ilm-fan, madaniyat rivojiga qo‘shgan hissasiga shaxsiyatidagi adolatparvarlik xususiyatiga yuksak baho beradi. A.X. N. ning she’riyatidagi mahorati haqida so‘zlar ekan, uni Firdavsiy, Xoqoniy, Xusrav Dehlaviylar qatoriga qo‘yadi. N.ni *“Fazl-u hunarda, xulq-u karamda zamonaning yagonasi”* deb ta’riflaydi. Bobur A.X.ning “Layli va Majnun”i haqida so‘zlab, *“agarchi latofati shuhraticha yo‘qtur”*, deb yozadi.

XVI asrda yashagan o‘zbek shoiri (qo‘ng‘irot urug‘idan) Nodirbek sadr A.X.ning “Temurnoma” asariga tatabbu’ yozgan va shayboniy Abdullaxonga bag‘ishlagan. Ko‘rinadiki, garchi N. va Bobur A.X. ijodiga uncha yuqori baho bermagan bo‘lsalar-da, uning ham o‘z muxlislari va izdoshlari bo‘lgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолисун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Абдуллоҳ Ҳотифий. Лайли ва Мажнун, бо тасхиҳ ва муқаддимаи. Асадуллаев С. – Душанбе, 1962; Шодиев Э. Навоий ва ёш тожик адиблари. – Ленинобод, 1969.*

S.G‘.

ABDULXAYROV Manzar Husanovich (1964, – Shahrisabz) – matnshunos olim, shoir, f.f. d-ri. O‘zMU Sharqshunoslik fakultetida (1982–1988) o‘qigan, O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot (hozirgi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti) ilmiy tekshirish instituti aspiranturasida tahsil olgan (1991–1994). A.M.H. prof. Sh.Shukurov rahbarligida “Devoni Munis” tilining leksik qatlamlari” mavzusida nomzodlik (1996), so‘ngra “Navoiy asarlari matni tabdilini amalga oshirish usullari, tamoyillari va amaliy masalalari” mavzusida doktorlik (2020) dissertatsiyalarini himoya qilgan. Respublika va xalqaro miqyosda yuzdan ortiq maqolasi hamda ko‘plab she’r va hikoyalari chop etilgan. “Eski o‘zbek yozuvi” o‘quv qo‘llanmasi (1989), “Ming bir so‘z” qo‘llanmasi (1991), “Sohil ohanglari” she’riy to‘plami (2004), “Navoiy merosi – so‘z maxzani” o‘quv qo‘llanmasi (2005), “Navoiy asarlarida so‘z va iboralar” monografiyasi (2009), “Navoiy asarlarining izohli lug‘ati” (2018), “Lison ut-tayr” tabdili (2019), “So‘z sari, So‘zing sari” she’riy to‘plami, (2021), “Xamsa” dostonining to‘liq nasriy tabdili” (2021), “Orazin yopqach ko‘zumdin” to‘plami (2021), “Ko‘zidin boshda havodir” to‘plami (2021), “Timsol tadriji” monografiyasi, “Adabiy manbani matniy tadqiq etish usullari va tamoyillari” monogafiyasi (2022), “Asliyat va tabdil muammolari” o‘quv qo‘llanmasi (2023) nashr qilingan.

Olim dissertatsiyasida N. asarlari matni tabdilini amalga oshirish usullari, tamoyillari va amaliy masalalari muammolarini tarixiy aspektda matnshunoslik va adabiy manbashunoslik nazariyasiga ko‘ra asoslab, keng tahlil qilgan. Ulug‘ shoirning boy adabiy merosi sho‘rolar davrida g‘oyaviy-badiiy tahrirdan o‘tkazilib, asliyatdan yiroqlashtirilganligi aniqlanib, qo‘lyozma manbalar asosida nashrlaridagi nuqson va kamchiliklar tuzatilgan, yangicha tamoyillar asosida chuqur tahlillar orqali ochib bergan. Mazkur dissertatsiya N. asarlarini tushunish va tushuntirish yo‘lidagi yangi izlanishlardan biri sifatida muhim ilmiy qimmatga ega.

Ad.: *Абдулхайров М. Навоий асарлари матни табдилини амалга ошириш усуллари, тамойиллари ва амалий масалалари. ф.ф. д-ри. дисс. – Т., 2020; Абдулхайров М. Навоий мероси – сўз махзани. – Т., 2005; Абдулхайров М. Навоий асарларида сўз ва иборалар. – Т., 2009; Абдулхайров М. Тимсол тадрижи – Т., 2022; Абдулхайров М. Аслият ва табдил муаммолари. – Т., 2023.*

O.T.

ABDULKARIM MIRZO – (XIX asr) Buxoro xattotlik maktabi vakili, olim va mohir xattot. “X.” (ShI. Inv. 9751/11 336 v.) va “L.T.” (ShI. Inv. 9751/ 1. 324 v.)ni Buxoro nasta’liq xatida (1257/1841–42 y.), oqish, yupqa, shaldiroq Qo‘qon qog‘ozida ko‘chirgan, varaq atroflari oltin suvida hoshiya tortilgan, 336 varaq. Yana bir qo‘lyozma ShI-2, inv.448. Nusxa to‘rt devondan olingan she’rlardan iborat, g‘azallarda har bir harfga sarlavha bor, boshidan oxirigacha poygir mukammal, matn qora siyohda, sarlavhalar qizil siyohda bitilgan. Qo‘qon qog‘ozi.

Ad.: *Собрание восточных рукописей академии наук, VII т. – Т., 1964.*

Muh.A.

ABDULMANNON IBN ABDULVAHHOB KOTIB (1880–1945, Toshkent) xattot. U ko‘chirgan 20 ga yaqin qo‘lyozma O‘zR FAShIda saqlanmoqda. Bular orasida N.ning “X.” (1905) va “M.N.” (1917) asarlari aniq va ravon nasta’liq xatida ko‘chirilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1-жилд. – Т., 2000.*

Muh.A.

ABDULQODIR GO‘YANDA (laqabi; asl ismi: Xoja Kamoliddin (Nizomiddin) ibn G‘aybiy ibn Ayniy) (1376, Isfahon – 1435, Hirot) – taniqli hofiz, bastakor, musiqashunos. Isfahonning Noyin qishlog‘ida tug‘ilgan. Sa’diy Sheroziy avlodlaridan ekanligi naql qilinadi. 10 yasharligida o‘z davrining qator ilmlarini egallaydi. Musiqa ilmini otasi huzurida o‘rganadi. Yoshligidan she’r to‘qib, kuy bastalagan. Nay, ud, chag‘ona, rubob, ajabrud va boshqa cholg‘u asboblarini chalishda tengsiz bo‘lgan. 1379-y.da Ahmad Jaloyir saroyida ramazon oyida har kuni bir kuy bastalab, o‘zi uni ud asbobida ijro etgani naql qilinadi.

Dastlab, Bag‘dodda – Iroq hokimi Sulton Uvays Jaloyir (1356–1373) saroyida xizmat qiladi. Bu yerda u 1397-y.da zamonasining mashhur bastakori Rizouddin Rizvonshoh tashabbusi b-n o‘tkazilgan 100 ming dinor mukofot belgilangan tanlovda g‘olib chiqadi. So‘ng hamkasbi Qutb Noyi b-n Tabrizda – Amir Temurning o‘g‘li Mironshoh huzurida bo‘ladi. N.ning “M.N.” tazkirasida keltirilishicha, Sohibqironning o‘g‘li Mironshoh ichkilikka berilib, ko‘pgina nojo‘ya ishlarni sodir etadi. Amirning amriga ko‘ra, shahzodaning bunday yomon yo‘lga kirishiga sababchi bo‘lgan Mavlono Muhammad Koxiy b-n Ustod Qutb Noyining boshi tanidan judo qilinadi. Ammo ulardan biri – Xoja Abdulqodir qochib ketadi va begona yurtlarda o‘zini devonalikka solib yuradi. Ba’zilar yana Bag‘dodga borib, avvalgi valine’mati Ahmad Jaloyir huzurida panoh topganini aytadilar. Temur 1393-y. da Iroqqa 2-marta yurish qilganida qochoqni tutib keladilar. Shunda Qur’onni yod bilgan va yaxshigina qiroati bo‘lgan Xoja Abdulqodir bir Qur’on o‘qimoq qiladikim, Sohibqironning qahri mehrga aylanib, ko‘ngli yumshaydi va atrofidagilarga qarab quyidagi mashhur misrani o‘qiydi:

Abdol zi bim chang dar Mushaf zad.

Tarj.: Darvesh qo‘rqqanidan Qur’onga chang soldi. Andin so‘ngra Xojag‘a iltifot va tarbiyatlar qilib, o‘z oliy majlisida nadim va mulozim qildi.

Boshqa bir rivoyatga ko‘ra, Amir Temur Iroq sari yurish qilganida A.G. tuyalar karvoni b-n unga peshvoz chiqadi. U har bir tuyaning

bo‘yniga ma’lum bir pardada ovoz chiqaradigan qo‘ng‘iroqni taqib qo‘ygan. Karvon yurganida qo‘ng‘iroq ovozlari bilan birgalikda Iroq maqomidagi dilkash bir kuy bo‘lib yangrar ekan. Buni eshitgan Sohibqoron amiri Lorni yoniga chaqirib, buning nimaligini so‘raganida, u kuy muallifining bir qoshiq qonidan kechishni o‘tinadi va:

– *Gunohkor qulingiz Xoja Abdulqodir bu kuyni aybining kafforati uchun sizga peshkash qilmoqda*, – deb izoh beradi.

Amir Temur vafotidan so‘ng u Samarqand taxtiga o‘tirgan ma’rifatli hukmdor, she’riyat va musiqa shinavandasi Xalil Sultonning eng yaqin nadimiga aylanadi. Shohrux Mirzoning Xalil Sulton ustidan g‘alabasidan keyin uning saroyida xizmat qiladi. U Shohrux saroyining shuhratini oshirgan san’atkorlardan biri sifatida manbalarda qayd etiladi.

A.G. nay u-n “Peshravi dor”, “Savti nay” kabi kuylar yaratgan. Rudakiy, Unsuriy, Farruxiy, Sa’diy, Hofiz, Kamol Xo‘jandiy kabi ko‘plab shoirlarning she’rlariga kuy bastalagan. “Rost” maqomlari yo‘lidagi “Amali Nasr”, “Taronai Iroq”, “Amali muxayyar”, “Buzurg”, ”Iroq”, “Dugoh”, “Dugoh” va Xoja Abdulqodir tasnifi”, “Amali tarona”, “Savti ushshoh”, “Mustazodi Navo”, “Amali Rost”, “Amali bo‘ston”, “Amali gesu”, “Amali guliston”, “Amali xoriston” A.G. ning mashhur va betakror kuylaridan hisoblanadi. Darvesh Alibek “Musiqa haqida risola” asarida ma’lumot berishicha, 12 maqomni ham aslida u kashf etgan. Uning “Maqosid ul-alhon” (“Kuylarning maqsadi”), “Jome’ ul-alhon” (“Kuylar majmuyi”), “Zubdat ul-advor” (“Musiqa ilmi xulosasi”), “Lahniya” (“Kuynoma”), “Nag‘amot ul-advor” (“Musiqiy ohanglar”), Kanz ul-alhon” (“Ohanglar xazinasi”), “Sharh ul-advor” (“Musiqa maqomlari sharhi”) va boshqa asarlari musiqa san’atining vujudga kelishi, rivojlanish bosqichlari, cholg‘u asboblari va ularning pardalari, zarb va vazndan foydalanish usullari kabi masalalardan bahs etadi. Jumladan, 1405-y.da yozgan “Jome’ ul-alhon” (“Kuylar majmuyi”) to‘plamini Abdurahmon Jomiyga tuhfa qilgan. 1413–1418-yy.da uni qayta ishlab to‘ldirgan va boyitgan hamda Shohrux Mirzoga bag‘ishlagan. “Maqosid ul-alhon” (“Kuylarning maqsadi”) risolasini esa, Boysung‘ur Mirzoga taqdim etgan. A.G. Arastu, Batlimus (Ptolemey), Aflotun, Fisog‘urs (Pifagor) kabi qadimgi yunon, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abdulmo‘min Urmaviy kabi Sharq allomalarining musiqaga oid asarlariga sharhlar yozgan. O‘z navbatida, A.G.ing risolalari turk tiliga tarjima qilinib, unga sharhlar bitilgan. Sankt-Peterburg, Bodlen, Parij, Madrid, Britaniya kutubxonalarida A.G. asarlarining mukammal nusxalari saqlanadi. Sulton Muhammad Udiy Samarqandiy, Qutbiddin Noyi, Yusuf Andijoniy, Abdulmo‘min Hofiz, Hofiz O‘bahiy kabi XV asr hofiz-u musiqashunoslari A.G.ning shogirdlari hisoblanadilar. O‘g‘li Abdurahmon va nabirasi Abdulaziz musiqa tadqiqi va tahlilida A.G. an’analarini davom ettirganlar. N. “M.”dagi Shohquli G‘ijjakka yozilgan maktubida A.G. nomini tilga oladi: “...to ishing ul yerga yettikim, Fisog‘urs hakim zamonidinkim, advor ilmining voze’idur, Arastu zamonig‘achakim, muallimi avval debturlar va Abu Nasr Forobiy chog‘indinkim, muallimi soniy debturlar, Xoja Abdulqodir asrig‘acha ma’lum emaskim, bu fanda hech podshoh zamonida bu fan ahlidin hech kimga muncha tarbiyat va nash’-u namo voqe’ bo‘lmish bo‘lg‘aykim, senga voqe’ bo‘ldi”.

A.G.ning kenja o‘g‘li Abdulaziz ham yetuk bastakor bo‘lib yetishadi. Uning “Naqvat ul-advor” (“Musiqa maqomotidan sochmalar”) asari turk sultoni Mehmet II (1451–1481)ga bag‘ishlangan. Nabiralaridan biri Mahmud ham turk sultoni Boyazid II (1481–1512) davrida yashab, u ham “Maqosid ul-advor” (“Musiqaning maqsadi”) kitobini bitgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Муншаот. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд. 1. – Душанбе., 1988; Норқулов Н. Темурийлар даври маданияти тарихидан лавҳалар. – Урганч, 1996; Қодиров Э. Алишер Навоийнинг насрий услуби масалалари. – Т., 2022.*

E.O.

ABDULQODIR IBN MULLO BAHODIR KOSHG‘ARIY (XIX asr – XX asr boshlari, Koshg‘ar) – olim, nasx, suls va nasta’liq xatlarida mohir bo‘lgan va kitoblar ko‘chirgan. N.ning “L.T.” va “X.”sini 1249/1933–34-y.da Koshg‘arda kitobat qilgan. Har bir doston boshlangan sahifada kitob egasining muhri bosilgan. Matn qora siyohda, sarlavhalar qizil siyohda yirik chiroyli nasta’liq xatida bitilgan. Hoshiyasida zarhal, yaxlit ko‘k rangli jadval tortilgan, charmli, naqshli muqova, 369 varaq.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Садри Зиё. Тазкират ал-хаттотин. ШИ-1, № 1304/III; – Т., ШИ, инв. 229.425 в; Муродов А. Марказий Осиё хаттотлик санъати тарихидан.*

Muh.A.

ABDULHAKIM Matnazar (1948–2010, Urganch) – taniqli shoir, mohir tarjimon, nozikta’b adabiyotshunos, hozirjavob publitsist. Xorazm viloyati Urganch tumanidagi Qorovul qishlog‘ida tug‘ilgan. O‘rta maktabni tugatgach, 1967–1972-yy.da Rossiyadagi Taganrog DPIning Filologiya fakultetida tahsil olgan. So‘ngra Urganch tuman gazetasida bo‘lim mudiri, qishloq maktabida o‘qituvchi bo‘lib ishlagan. 1982–1997-yy.da O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Xorazm viloyat bo‘limida adabiy maslahatchi bo‘lib ishlagan. 1997-y.dan to umrining oxirigacha Xorazm Ma’mun akademiyasida ilmiy xodim bo‘lib faoliyat yuritgan. “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan Madaniyat xodimi” unvoni (1996) sohibi, “Ofarin” mukofotining “Yilning eng yaxshi shoiri” nominatsiyasi g‘olibi (2002).

A.M. bir necha jihatdan N. b-n bog‘langan. U N. ijodini muttasil mutolaa qilar, undan mahorat sabog‘ini olar edi. Shoirning o‘zi bu haqda: “Navoiyni har kuni yod olish, o‘qish va uqish kerak. Dunyo hikmatlari, umr saboqlari Navoiy asarlarida mujassam”, – deb ma’lumot beradi. E.Vohidov bejiz uni “Navoiy yo‘lidagi shoir” deya lutf etmagan. Avvalo, shoir ijodida buyuk salafi ta’siri va navoiyona ohanglarni ko‘ramiz. Ikkinchidan, u N. g‘azallariga tatabbu’lar qilgan va taxmislar bog‘lagan. Uchinchidan, N. haqida maqolalar yozgan, ba’zi g‘azallarini sharhlagan. Jumladan, shoirning quyidagi misralarida N. qo‘llagan “mardumlig‘ fan qilib”, “xazon sipohi” kabi timsol-u tashbehlarning yangicha jarangini ko‘ramiz:

Va men sakraydirman qo‘y ko‘zlaringga
Olov halqalarning arosidan.

Mardumlig‘ fan qilib, vatan tutgayman
Ko‘zlaring qarosida.

Jangga kirgan mahal xazon sipohi,
Soat eng yaxshi zirh, mustahkam sovut.

Ellikqal’a ellik asrning ohi,
Bir damdek besh ming yil tafovut.

N. g‘azallarini tahlil qilish va sharhlash ham A.M. ijodining yo‘nalishlaridan biri edi. M-n:

Tong yo‘qki ko‘zung bo‘lsa
ko‘ngul birla muloyib,
Majnunga ajab yo‘q agar ohu
bilan o‘ynar, –

baytini shunday sharhlaydi: “Bu g‘azal Navoiy g‘azaliyotining ruhi – jahoniy bir dardkashlik, hasratangezlik kayfiyati bilan sayqal topgan. Mazkur baytdagi “muloyib” so‘zi hazillashib, bir-birovni xush ko‘rishib, o‘ynamoq mazmuniga ega. “Layli va Majnun” dostonida Qays Laylining visolidan mahrum bo‘lgach, telbalanib, dasht-u biyobonga bosh olib chiqib ketadi. U yerda jonivorlar bilan do‘st tutinadi. Ohular bilan dardlashadi. Navoiy yor ko‘zini ohuga o‘xshatmoqda. Ya’ni ko‘z – ohu, ko‘ngil – Majnun. Bu baytda shunday hikmat yashirin – ko‘ngil

ko‘chasi adashtiradi. Ko‘z esa aldamaydi. Ohu yuvoshlik, bokiralik timsoli bo‘lganligi uchun N. aybni bilvosta ko‘ngilga to‘nkab, ko‘zning begunohligiga ishora qiladi”.

A.M. Ogahiy ijodini N.ga qiyosan tekshirgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Абдулҳаким М. Мангулик жамоли. – Хива, 2009; Абдулҳаким М. Сайланма. 2 жилдлик. – Т., 2017; Ғаипова Ҳ. Матназар Абдулҳакимнинг бадиий ва публицистик маҳорати НДА. – Т., 2019.*

E.O., D.G‘.

ABDURAHMON Go‘zal (1942, Antalya) adabiyotshunos, tilshunos, tasavvufshunos, ilohiyotshunos turk olimi. Uning turkiy tillarni millat ruhi o‘laroq anglash va uni avlodlarga yetkazish yo‘lidagi sa’y-harakatlari butun turk olamiga ma’lumdir. Ayniqsa, olimning “Diniy-tasavvufiy turk adabiyoti. El kitobi”, “Ahmad Yassaviy “Faqrnomasi”, “Sulaymon Boqirg‘oniy hayoti va uning hikmatlari”, “Bizim Yunus” kabi yirik monografik tadqiqotlari turkiy adabiyotni anglashda muhim sanaladi. Olim ilmiy faoliyatida o‘zbek ijodkorlari va ularni tadqiq etgan olimlar b-n aloqasi e’tirofga molik. A.G.ning amaliy harakatlari natijasida Turkiyada N. asarlarini keng targ‘ib qilish, shoirning sharafli hayoti va turkiy tilni san’at tiliga aylantirishdagi salohiyatini tushuntirish yo‘lida Bashkent universiteti huzurida 2022-y. 10-fevralda “Alisher Navoiy tadqiqot va targ‘ibot markazi”ning tashkil etilishi esa tahsinga loyiq. Markazni tashkil etish muhimligini anglatish maqsadida A.G. N.ning “millatlarga hayot baxsh etgan boqiy ruh sifatiga ega shaxsiyat” ekanligini dalillovchi, katta ijtimoiy-madaniy taraqqiyotlarning dunyoga kelishida buyuk shoirning o‘rnini isbotlovchi maqolalar yaratdi. Shoirning hayot yo‘li, davlat arbobi va adabiy shaxsiyati, turk tili taraqqiyoti yo‘lidagi ulkan xizmati va asarlari haqida alohida ilmiy xulosalarga ega izlanishlar olib bordi. U: “Navoiyning yana bir muhim jihati shundaki, u o‘z asarlarida milliy tip va xarakterlardan foydalangan. Forsiy adabiyotda qo‘llanilgan qahramonlar N. asarlarida faqat nomlarinigina saqlab qolgan holda turkiy shaxsiyatni tamsil etgan” kabi qarashlarni o‘rtaga tashlab, bu xulosalarni nazariy asosladi. Natijada, N. asarlarining mukammal nashrlarini yaratish, uning asarlarini tahlil va talqin etuvchi tadqiqotlar yaratish, turkiy tilni she’riyat tili bo‘lishida N.ning xizmatlarini ochib beruvchi xalqaro konferensiyalar o‘tkazish kabi oliy maqsadlar qo‘yildi. Albatta, N. asarlari turli davlatlarda mavjud. Ammo bu markazning shoir asarlari va N.ga bag‘ishlangan tadqiqotlar jamlangan bir kutubxona ham yaratish kabi maslaklari n.shunoslikdagi muhim yutuq bo‘lishi aniq.

A.G.ning “H.A.” dostoni xususidagi izlanishlari n.shunoslikdagi yangi bir uslubdagi tadqiqotdir. Olimning “Hayrat ul-abrorda tasavvufiy unsurlarga misollar” maqolasi fikrimizni to‘la quvvatlaydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Абдураҳмон Гўзал. Яссавий “Фақрнома”си. – Т., 2014; Abdurrahman Güzel. Dini tasavvufi türk edebıyatı el kitabı. – Ankara, 2021.*

Z.R.

ABDURRAZZOQ – N. davri sohibi ilmlaridan. “Gavharshodbegim” madrasasining talabasi bo‘lgan. Balog‘atda yetuk edi. “M.N.” tazkirasida keltirilishicha, sohibjam’ – madrasadagi moliya ishlarining mas’ul xodimi nafaqalarini kechroq hujjatlashtirgani u-n N. huzuriga shikoyat qilib kelgan talabalar arzini yetkazishni unga topshirganlar. U “barot namenavisad” – “pul olish u-n hujjat yozmayapti” iborasi b-n so‘z boshlaydi. Rangida qizillik g‘olibligi u-n uni “surxqalb” – “qizilqalb” deb hazillashganlar. Quyidagi matla’ uning qalamiga mansub:

Joni man toza shud az la'li tu xunxoriyi dil,
Ba'd az-in movu sari ko'i tuvu zoriyi dil.

Tarj.: Dilning qonini ichadigan sening la'l kabi qizil labingdan jonim toza bo'ldi. Bundan keyin men-u ko'chang boshi-yu dil zori doimiy bo'ladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Навоий асарлари луғати. Тузувчилар Порсо Шамсиев, Солиҳ Муталлибов. – Т., 1972.*

E.O., S.G'.

ABDURAZZOQ SAMARQANDIY – (Kamoliddin Abdurazzoq ibn Is'hoqi Samarqandiy, 1413 – 1482, Hirot) shoir, tarixchi, davlat arbobi. Otasi asli Samarqanddan bo'lib, Hirotda Shohrux saroyida imom va qozi bo'lgan. A.S. yoshligida ta'rix, hadis, tafsir, til, adab va she'r san'atini puxta o'rgangan. 24 yoshida saroy xizmatiga da'vat etilgan. 50 yoshga qadar Shohrux, Abulqosim Bobur va Abusaidlar mulozimi bo'lgan. 1442–1444-yy.da elchilar boshlig'i sifatida Hindistonga borib kelgan. Abulqosim Boburning Mozandaron (1453), so'ngra Samarqand (1454) ga qilgan yurishlarida qatnashadi. A.S. 50 yoshida davlat ishlaridan voz kechib, Hirotdagi Shohruxiya xonaqosida shayxlik qiladi.

N., Mirxond va Xondamirlar A.S.ning taniqli tarixnavis bo'lganini qayd etishgan bo'lsa, "M.N."da esa N. A.S.ni Hirotning donishmand kishilaridan bo'lgan shoir va kimyogar Mavlono Abdulqahhorning ukasi ekanini yozadi. A.S. yaxshi suhbatli, ko'p fazilatlar egasi bo'lib, xususan, tarix ilmida mashhurligini ta'kidlaydi. N.ga ko'ra: "... har kishi bu fanda aning mahoratin bilay desa o'z tarixidin bila olur". N. A.S. she'rlaridan quyidagi bir matla'ni keltiradi:

Boz abr-u kard bolo turki tirandozi man,
Olamro kusht-u dorad in zamon andozi man.

Tarj.: Mening mergan go'zalim yana qoshlarini chimirib, butun olamni o'ldirdi-yu, endi menga (o'q) otmoqchi bo'ladi.

A.S.ning "Matla' un-sa'dayn" asari keng kirish so'z va mufassal izohlar b-n o'zbek tiliga tarjima qilingan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Абдураззоқ Самарқандий. Матлаъи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. Таржима, кириш сўз, изоҳ ва луғатлар А.Ўринбоевники. – Т., 1969; Ўринбоев А. Абдураззоқ Самарқандийнинг ҳаёти ва тарихнавислик фаолиятига доир. – Т., 1969.*

S.G'., Q.E., E.O.

ABDURRAHIM ISTAXRIY (t. va v.e.y.n. Istaxriy nisbasiga ko'ra, uning tug'ilgan joyini Istaxr shahri deb taxmin qilish mumkin.) – N. "N.M." tazkirasida "Abdurrahim Istaxriy" sarlavhasi ostida alohida fiqra bag'ishlagan orif insonlardan biri. N. fiqradagi ba'zi ma'lumotlarni uni ko'rgan, u b-n ko'p bora suhbat qurgan va Lug'om tog'ida u b-n birga ovda, safarda bo'lgan, ro'za tutgan Ruvaym, Sahl Abdulloh, Abdulloh Hafif, Ja'far Havzo kabi shayxlar tilidan bayon qilgan. Fiqrada N. uning laqabi Abu Amir ekanligini ham eslatgan hamda u A.I. ham boshqa shayxlar qatori nihoyatda faqirona, g'aribona tarzda hayot kechirishini gapirgan: "Uyida bir o'y terisi ermishki, ostig'a solur ermishkim, o'yning shoxlarini ham ul teri bila qo'yg'on ermishlar. Qish oni uyga sudrab solur ermish va yoz tashqari sudrab ermish". Ammo shayxning harakatlari yoshiga nisbatan juda yengil, chaqqon, hatto xizmatkorlarga xos shotirona uslubda kiyinib yurishini, uni yaqindan bilgan shayx Sahl tilidan aytgan, uning xabar berishicha, A.I. o'zining ichki ahvolini, dilidagi sirini bildirmaslikka harakat qilishini yozgan. N. A.I. oylab ovqat yemasa ham, unda polvonlarga xos ruhiy quvvatning borligini uning katta toshni ko'tarib, tomga chiqargani b-n bog'liq voqeani hayrat b-n bitgan. Fiqrada u haqida aytilgan ma'lumotlardan mu-

himi shuki, A.I. otasidan meros bo‘lib qolgan 20 ming diramni elga ehson qilib yuborganidir. Chunonchi: “Anga otasidan yigirma ming diram meros qoldi. Ammo el zimmasida erdi va o‘n mingni elga kechti va o‘n mingni oldi. Kecha tong otquncha, ul vajh oni gohi savdo xayolig‘a gohi ziroat xayolig‘a parishon qilib erdikim, sahar qo‘pub, ul vajhlarni ovuch-ovuch qo‘shinlar uyiga sochti. Kunduz ul elga xayol bo‘ldikim, go‘yo yormoq yog‘ibdur. Ul tubrani silkidi, yarim diram qolib erdi. Tushti, as’hobiga dedikim, ishorat sizgakim, non-u baqlo bo‘ldi. El dedilar bu devonani ko‘rung! O‘n ming diramni sochib, yarim diram uchun shodliq qilur. Vaqte Abodong‘a bordi va yigirma bir kun qoldi. Har ne oqshom anga iftor uchun keltururlar erdi, tongla mavjud erdi. Xalq oning sheftasi bo‘ldilar”.

Umuman, N.ning shayx A.I. to‘g‘risida yozgan qimmatli ma’lumotlari orqali biz ma’lum ma’noda shayxlar, orif, so‘fiy insonlarning shariat rioyati va tariqat odobi, riyozat va karomati, ro‘za va rizo, sabr va sadoqatlari b-n tanishdik.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва табъироти ирфоний. – Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.); Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005; Навоий асарлари луғати. Тузувчилар Порсо Шамсиев, Солиҳ Муталлибов. – Т., 1972.*

B.R.

ABDUSSAMAD – N. davridagi xushxat kotiblardan biri. U she’r yozish qobiliyatiga ham ega bo‘lgan. A. haqida “Xam.M.”da Abdurahmon Jomiyning ilk tuzgan devonini ko‘chirish munosabati b-n ma’lumot beradi: *“Bir qatla faqir alarning qadimiy devonin mavlono Abdussamadg‘akim, zamonning xushnavislaridindur va xushtab’ ham bor, buyurib erdim va ulcha maqdur takallufdur qililib erdi”*.

Lekin N. bu devonni yaxshilab ko‘chirish haqida har qancha iltimos qilmasin, A. beparvolikka yo‘l qo‘yib, uni boshidan oxirigacha har baytda bir-ikki va undan ortiq xatolar b-n ko‘chirgan bo‘ladi. Jomiy devonni ko‘rib chiqadi va xafa bo‘ladi. N: “Bu qo‘lyozma boshdan oxiriga qadar sizning “muborak qalamingiz b-n” tuzatilsa, uning qimmati yanada ortgan bo‘lur edi”, – deydi. Jomiy xati esa, Y.E.Bertelsning yozishicha, uncha chiroyli bo‘lmagan. Ba’zi o‘rinlarda A. ayrim baytlarni tashlab ham ketgan ekan. Ularni qo‘shadi. Oxiriga esa Jomiy A. va uning xati haqida quyidagi qit’ani bitib, qo‘shib qo‘yadi:

Xushnavis chu orazi xubon
Suxanamro ba xatti xub orost.

Lek har jo dar o‘ zi sahfi qalam
Goh chize fuzud-u gohe kost.

Kardam islohi on bo xate xesh,
Garchi n-omad chunonchi dil mexost.

Har chi u karda bud bo suxanam,
Ba xaiyi u qusur kardam rost.

Tarj.: Xushnavis kotib o‘zining chiroyli xati b-n so‘zlarimni go‘zallarning yuzidan bezabdi. Lekin uning qalami xatosi b-n hamma joyda goh bir narsani o‘zidan qo‘shib yozgan, goh tashlab ketgan. Garchi ko‘nglim xohlagandek chiqmagan bo‘lsa ham, men o‘z xatim b-n ularni tuzatib chiqdim. U mening so‘zlarimni qanday ahvolga solgan bo‘lsa, men uning chiroyli xatini shunchalik buzdim.

N. bu qo‘lyozmani chindan ham eng tabarruk kitoblar qatoriga qo‘shib qo‘yadi. Oqquyunlilar davlatining podshosi Ya’qub N.dan Jomiy devonini yuborishni iltimos qilganida N. o‘z kitobxonasidan A. ko‘chirgan, Jomiy o‘z qo‘li b-n tuzatgan ushbu qo‘lyozmadan azizroq nusxa topa olmagan va uni Sulton Ya’qubga tuhfa qilib yuborar ekan, uni ko‘chirish b-n bog‘liq yuz bergan voqealarni ham yozib yuborgan. Sulton Ya’qub “o‘qub, xushvaqtlig‘lar qilib, qit’ani yod tutib, (javob) maktubda minnatdorlik izhor qilib erdilar”, – deydi N. “Xam.M.”da.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамсат ул-мутаҳаййирин. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Бертельс Е.Э. Жомий ва Навоий. – Т., 1966; Бертельс Е.Э. Навоий. М.–Л., 1948; Абдуғафуров А. Навоий сатираси. 1-китоб. – Т., 1966.*

Ab.H.

ABDUSAMAD BADAXSHIY (t.y.n., Badaxshon − 1490, Ko‘histon) − fors-tojik shoiri. Badaxshon va Hirotda tahsil olgan. Xattotlik b-n ham shug‘ullangan. N. uning masnaviy yozish borasidagi mahoratini maqtaydi. “Bir baytida tajnis” xayol qilib, qofiyasin g‘alat qilib erdi, faqir ani voqif qilgach, filhol mutanabbih bo‘ldi va izhori minnatdorlig‘ ham qildi va bu ish aning bila faqir orasida oshnoliqqa sabab bo‘ldi”, – deb yozadi u “M.N.”da. A.B. Jomiy b-n ham yaqin bo‘lgan.

Hasanxoja Nisoriy A.B. she’rlarida niyozmandlik ruhi kuchli ekani, zero, ma’shuqa ishqiga giriftor oshiqning holi shunday bo‘lishi lozimligini aytib, misol tariqasida uning quyidagi baytini keltiradi:

Bar sariri dilbari ma’shuqro sad guna noz,
Oshiqi bechoraro dar ko‘yi g‘am ro‘yi niyoz.

Tarj.: Ma’shuqa malohat taxtida ming noz b-n o‘tiradi-yu, bechora oshiq ming g‘am ko‘yida bosh uradi.

A.B. haqidagi ma’lumotlar tazkiraning 2-majlisida berilishidan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, bu shoir ushbu tazkira tuzilayotgan yili (1490–91) hayotdan ko‘z yumgan. A.B. Abdusaid Mirzo hukmronlik qilgan yillari (1458–1469) Badaxshondan Hirotga kelgan. A.B. shoir (“masnaviygo‘y”) bo‘lish b-n birga tarixchi, tarixiy kitoblar muallifi bo‘lgani u-n Abusaid unga o‘z podshohlik davri tarixini yozishni buyurgan. (“Podshoh anga o‘z tarixini buyurdi”). B.ning N. b-n yaqinligi esa she’riy ijod masalasida yuz bergan. Lekin N. A.B. b-n qayerda va qachon tanishganini aytmaydi. Tazkirada A.B. masnaviysidan to‘y haqidagi bir bayt misol keltiriladi. A.B. qabri, odamlar aytishicha, Ko‘histon degan joyda ekani qayd etiladi. Adabiyotshunosligimizda A.B. haqida boshqa ma’lumotlar uchramaydi. A.B. ning asarlari ham bizgacha yetib kelmagan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ҳасанхожа Нисорий. Музаккири аҳбоб (И.Бекжон тарж.). – Т., 1993; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988; Айний С. Асарлар. 8-жилд. – Т., 1907.*

Ab.H., E.O.

ABDUSSALOM SHEROZIY – tabib. N. “H.P.M.” asarida ma’lumot berishicha, o‘z davrining mohir hakimi va hoziq tabibi bo‘lgan A.Sh. N. Mashhadda mafosil marazi (bo‘g‘imlarning zirqirab og‘rishi) b-n bir hujrada yotib qolganida uni muolaja qilgan: “Mavlono Alo ul-mulk tabib bila Mavlono Abdussalomi Sheroziyki, benazir muolij erdi – Pahlavong‘a musohib erdi va doyim bu fan bahsida va guftu shunuftida alar Pahlavon so‘zlarin musallam tutib, muolajalarin ham ta’rif qilur erdi va as’hobdin har qaysig‘a maraz tori bo‘lsa erdi, ko‘pi ul erdikim, o‘zi muolaja qilur erdi”.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳолоти Паҳлавон Муҳаммад. ТАТ. 10 жилдлик. 10-жилд. – Т., 2011.*

M.A.

ABDUQODIROV Abdusalom (1949 – Xo‘jand – 2020,) – n.shunos olim, f.f. d-ri. (1998), prof. (1999). Tojikiston maorifi (1998) va madaniyati (2013) a’lochisi. A.A. Tojikiston Respublikasi, G‘onchi tumanidagi Havutak qishlog‘ida oddiy dehqon oilasida dunyoga kelgan. O‘rta maktabni tugatgach (1966), maktabda kutubxona mudiri (1966–1967), o‘qituvchi (1967–1968) bo‘lib ishlagan. Harbiy xizmatni o‘tagach (1968–1970), hozirgi Xo‘jand DUni imtiyozli diplom b-n tugatib (1974), o‘zi tahsil olgan OO‘Yda ish boshlaydi va bosh laborant

(1974–1976), o‘qituvchi (1976–1986), dotsent (1986–1988), “O‘zbek adabiyoti” kafedrasi mudiri (1988–1993; 1995–1998; 2004–2012), katta ilmiy xodim (1993–1995), O‘zbek filologiyasi fakulteti dekani (1998–1999), dekan o‘rinbosari (1999–2000), “O‘zbek tili va adabiyoti ta’limi metodikasi” kafedrasi mudiri (2000–2004) lavozimlarida faoliyat ko‘rsatdi. 2012-y.dan umrining oxiriga qadar “O‘zbek adabiyoti va uning ta’limi metodikasi” kafedrasi prof.i bo‘lib ishladi. Sermahsul va serqirra olim 30 dan ortiq monografiya, to‘plam, risola, darslik, o‘quv qo‘llanmalari va 300 dan ziyod ilmiy maqolalar muallifi edi.

A.A.ning ilmiy ishlarida o‘zbek-tojik adabiy aloqalari, N. va tojik shoirlari ijodidagi an’ana va yangilik hamda badiiy mahorat, N. ijodiy faoliyatidagi tasavvuf masalalari tadqiq etilgan. Uning “Tasavvuf va Alisher Navoiy ijodiyoti (vahdat ul-vujud problemasi bo‘yicha)” deb nomlangan doktorlik dissertatsiyasi (1998) ham N. ijodidagi tasavvufning muhim bir masalasi tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, unda Alloh, olam va odamning yagonaligini ifodalagan vahdat ul-vujud (borliqning yaxlitligi) ta’limoti tahlili ishq, faqr-u fano va komil inson masalalari b-n bog‘lab talqin etilgan.

A.A. ilmiy kuzatishlarining asosiy qismini N. hayoti va ijodiga doir ishlar tashkil qiladi. Ustoz olimning bu boradagi ilmiy faoliyati alohida ilmiy qimmat kasb etishini “Amir Alisher Navoiy” (2003; to‘ldirilgan ikkinchi nashr – 2013, uchinchi nashri – 2019 (Toshkent), “Tasavvuf va Alisher Navoiy ijodiyoti” (2005), “Amir Alisher Navoiy va tojik mumtoz shoirlari” (2007), “Mavlono Abdurahmon Jomiy va Amir Alisher Navoiy” (2014) kabi monografiyalari misolida kuzatish maqsadga muvofiq. Xususan, so‘nggi 2 tadqiqotdan avvalgisi fors-tojik mumtoz shoirlaridan Nizomiy Ganjaviy, Jaloliddin Rumiy, Amir Xusrav Dehlaviy, Hofiz Sheroziy va Abdurahmon Jomiy an’analari qiyosiy-tipologik nuqtayi nazardan ilk marta qiyosiy yo‘sinda tahlil etilganligi b-n ahamiyat kasb etsa, keyingisi ikki ulug‘ shoirning hayoti va ijodi, o‘zaro adabiy hamkorliklari chuqur ilmiy tahlil qilinganligi b-n ikki xalq adabiy aloqalari yo‘lidagi muhim ishlardan biri bo‘ldi. Ayni yo‘nalishdagi izlanishlarini davom ettirib, u 2017-y.da “Adabiy aloqa, an’ana va mahorat”, 2019-y.da esa “Tasavvuf masalalari, navoiyshunoslik va adabiy ta’lim” risolalarini o‘quvchilar hukmiga havola etdi.

A.A. O‘zbekistonda tojik, Tojikistonda o‘zbek mumtoz adabiyotining zukko va serg‘ayrat tadqiqotchisi va targ‘ibotchisidir. Olimning qator maqolalari N. ijodiyotini forsiy adabiyotdagi buyuk salaflari tajribalaridan ayri tarzda o‘rganib bo‘lmasligiga iqror etuvchi yorqin dalillardir.

A.A. tabiatan tashkilotchi inson bo‘lib, o‘zbek-tojik adabiy aloqalarining yo‘lga qo‘yilishi va rivojlanishida, ayniqsa, O‘zbekiston va Tojikiston olimlarining o‘zaro hamkorligida bu olimning shaxsiy namunasi va sa’y-harakatlari tahsinga loyiq. U O‘zbekistonda o‘tkazilgan adabiyotshunoslik, xususan, n.shunoslikka bag‘ishlangan qator xalqaro ilmiy-nazariy anjumanlarning faol ishtirokchisi edi. Navoiy shahri faxriy fuqaroligiga qabul qilingan edi (2018). Olim “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalining tahririyat a’zosi va faol mualliflaridan bo‘lib, o‘zining dolzarb mavzulardagi teran ilmiy maqolalari b-n muttasil ishtirok etib kelgan. U Xo‘jand DU huzuridagi nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari himoyasiga Ixtisoslashgan kengash hamda Farg‘ona DU huzuridagi filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini berishga Ixtisoslashgan kengash a’zosi sifati Tojikiston va O‘zbekiston respublikalarini malakali filolog kadrlar b-n ta’minlash ishiga ham o‘zining munosib hissasini qo‘shib keldi.

Ad.: *Навоий ва тасаввуф. – Хўжанд, 1994; Навоий ва нақшбандийлик. – Хўжанд, 1994; Навоий ва ваҳдат ул-вужуд таълимоти. – Хўжанд, 1995; Навоий ва унинг салафлари ижодида ваҳдат ул-вужуд талқини. – Хўжанд, 1996; Тасаввуф истилоҳларининг қисқача изоҳли луғати. – Хўжанд, 1997; Тасаввуф истилоҳларининг қисқача изоҳли луғати, 2-китоб. – Хўжанд, 2002; Амир Алишер Навоий (ҳаёти ва ижоди). – Хўжанд, 2003; 2013; – Т., 2019; 2022; Тасаввуф ва Алишер*

Навоий ижодиёти. – Хўжанд, 2005; Алишер Навоий ва тожик муттоз шоирлари. – Хўжанд, 2007; Адабиёт луғати. (Фарҳанги адабиёт). – Хўжанд, 2009; Янги сўз ва атамалар луғати (Луғати калима ва истилоҳоти нав). – Хўжанд, 2009; Мавлоно Абдураҳмон Жомий ва Амир Алишер Навоий. – Хўжанд, 2014; Адабий алоқа, анъана ва маҳорат (Равобити адабӣ, анъана ва маҳорат). – Хўжанд, 2017; Тасаввуф, навоийшунослик ва адабий таълим масалалари. – Хўжанд, 2019; Ҳаққул И., Тўхлиев Б., Файзуллоев Б., Очилов Э., Сатторов Ў. Абдусалом Абдуқодиров // "Ўзбек тили ва адабиёти", 2019, 4-сон; Файзуллоев Б. Абдусалом Абдуқодиров – навоийшунос // Адабий таълимнинг муҳим масалалари, 1-китоб. (Мақолалар тўплами). – Т., 2021; Файзуллоев Б. Тасаввуф ва адабий алоқалар тадқиқотчиси (профессор А. Абдуқодиров илмий фаолиятига қисқача чизгилар) // Хожагон – нақшбандия таълимотининг ёшлар тарбиясида тутган ўрни. – Бухоро, 2023; Файзуллоев Б. Муҳаққиқи муносибатҳои (равобити) адабӣ (А.Абдуқодиров –тожик ва ўзбек адабий алоқалари тадқиқотчиси) // Конференсияи байналмилалии илмӣ-назариявии "Масъалаҳои мубрами суханшиносӣ дар ҳавзаҳои илмӣ ва адабии Осиёи Марказӣ " бахшида ба 70 солагии профессор Абдулманнони Насриддин (17–18-уми ноябри соли 2023) – Хўжанд, 2023.

B.F., E.O.

ABDUG'AFUROV Abdurashid Xo'jayevich (1931–2005, Toshkent) – adabiyotshunos, matnshunos. O'zbekiston Respublikasi fan arbobi (1999), f.f. d-ri (1970), prof. (1979). Beruniy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti laureati (1992). O'rta Osiyo davlat un-ti (hozirgi O'zMU)ning Filologiya fakultetini tamomlagan (1951). O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutida katta ilmiy xodim, yetakchi ilmiy xodim, bosh ilmiy xodim (1958–76; 1981–1992), bo'lim mudiri (1992) lavozimlarida faoliyat yuritgan. A.A.X. ning o'zbek mumtoz adabiyotining muhim ilmiy-amaliy masalalariga bag'ishlangan "O'zbek demokratik adabiyotida satira" (1961), "Navoiy satirasi" (1-jild, 1966), "Navoiy ijodida satira" (2-jild, 1972), "Zokirjon Furqat" (1977) kabi yirik monografiyalari mavjud. Muqimiy, Zavqiy, Kamiy, Bobur, Mashrab kabi qator ijodkorlar asarlarini nashrga tayyorlagan.

A.A.X. "Navoiy satirasi" (1-jild, 1966) kitobida XV asr adabiyotida satira, uning mavzu ko'lami va janrlari; N.ning satiraga munosabati; shoir ijodidagi satiraning o'ziga xos xususiyatlari, kulgi va uning turlari; tarixiy shaxslar, hayotiy voqea-hodisalar va satira; "M.N." tazkirasidagi zamondoshlarga berilgan satirik tavsiflar, shuningdek, N. asarlari turli ijtimoiy tabaqa vakillari xarakteri va xatti-harakatlaridagi nuqsonlar ayovsiz fosh etilishi masalalari yoritilgan.

"Navoiy ijodida satira" (2-jild, 1972) kitobi mutafakkir shoir ijodidagi satira mavzusi b-n bog'liq nazariy muammolar haqida bahs etilgan bob b-n boshlanadi. Shuningdek, monografiyada N.ning o'zbek mumtoz adabiyotida satirik yo'nalishning mustahkamlanishi, boyishi va rivojiga ko'rsatgan ulkan hissasi, shoir ijodidagi satiraning hozirgi kunimizdagi ahamiyati to'g'risida atroflicha fikr yuritilgan.

A.A.X.ning "Buyuk beshlik saboqlari" (1995) kitobi N. ijodiga bag'ishlangan maqolalar to'plamidan iborat. Kitobdan "Buyuk beshlik saboqlari", "Topilmagan g'azallar", "Kunda yuz bayt", "Ma'rifat dengizining duri", "O'n birinchi taxmis", "Alisher Navoiy ijodkor temuriylar haqida", "Navoiy va Husayniy", "Navoiy va Bobur", "Navoiy va Mashrab", "Navoiy va Furqat" maqolalari o'rin olgan. Ularda ulug' shoir ijodining gultoji bo'lgan "X.", "X.M." asarlarining o'ziga xos badiiyati, o'zbek mumtoz adabiyotida N. an'analari va so'z san'ati rivoji xususida bahs yuritilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик,*

6-8-жилд. – Т., 2011; Абдуғафуров А. Навоий ижодида сатира. – Т., 1972; Абдуғафуров А. Буюк бешлик сабоқлари. – Т., 1995.

M.A.

ABIVARD (Bovard) – Shimoliy Xurosonda qadimgi davrlarda va o‘rta asrlarda mavjud bo‘lgan shahar va muzofot. Sosoniylar davrida paydo bo‘lgan, deb hisoblanadi. Xurosonning eng chekka shimoliy chegarasida joylashgan va mazkur hududni ko‘chmanchi qavmlar hujumidan himoya qiluvchi mudofaa qo‘rg‘onlaridan biri sifatida xizmat qilgan. Tarixiy asarlarda bu yerda yashagan aholining ancha jangari bo‘lgani aytib o‘tilgan. Mazkur joy nomi manbalarda ikki xil tarzda, A. va Bovard shakllarida tilga olinadi. Shaharning Bovard deb atalishining sababini ayrim tarixchilar Kaykovus bin Bovard bin Gudars degan shaxs nomi b-n bog‘laydilar va shahar uning nomi b-n atalgan, deb ma’lumot beradilar.

XIV asrning oxirgi choragida Xuroson sohibqiron Amir Temur tomonidan zabt etilganda, A. ham uning davlati tarkibiga kirgan. Shohrux mirzo 1414-y.da Xurosonning katta qismini, shu jumladan, A.ni ham o‘g‘li Boysung‘ur mirzoga bergan. Bu haqidagi farmonda shunday deyiladi: “... Shunga binoan, Tus, Mashhadi muqaddas, Abivard, Samalqon, Jarmag‘on, Xabushon, Niso va Yozir viloyati, butun Mozandaron, Astrobod, Shosmon, Kabudjoma hamda Jurjonga tegishli barcha yerlarni u farzandga taqdim qildik va u viloyatlarning muhim ishlari jilovini uning noiblik sa’y-harakati qo‘liga topshirdik”. Sulton Husayn Boyqaro va N. davrida A. bir qadar ahamiyat kasb etgan. Bu vaqtda u yerga beklardan birining emas, shahzoda Muhammad Muhsin mirzoning hokim qilib tayinlanishi shundan dalolat beradi. Shahar nomi N. asarlarida ham tilga olingan. N. bu nomning ikkala variantini ham qo‘llagan va uni Abivard ham, Bovard ham deb atagan. Jumladan, “M.N.”da shoir Savdoiy haqida ma’lumot berish asnosida uning qayerlik ekanini ham aytib o‘tadi va “Bovarddindur” deb yozadi. Tazkirada A.da tug‘ilgan yana bir adib to‘g‘risida ham ma’lumot berilgan va shu o‘rinda N. uni “Mir Sayyid Husayn Abivardiy” deb tilga olgan.

N. hayotining so‘nggi yillaridagi voqealardan biri – uning ilk bor haj safariga otlanishi va yo‘ldan qaytishi qisman A. b-n ham bog‘liq. Muborak safar maqsadi b-n yo‘lga chiqqan shoir Mashhad shahriga kelib to‘xtaydi va mavlono Abdulxay Ziyoratgohiyni shoh huzuriga ruxsatnoma u-n jo‘natadi. U mazkur mavlononing qaytib kelishini kutib, Mashhadda turgan kunlari A. dan Haydar mirzo va Shayxim Suxayliy keladilar. O‘sha paytda A. hokimi Muhammad Muhsin mirzo otasiga qarshi isyon ko‘targan va Sulton Husayn o‘g‘li Haydar mirzoni Shayximbek b-n birga unga qarshi A.ga jo‘natgan, o‘zi esa boshqa isyonkor o‘g‘li – Abulmuhsinga qarshi Marvga qo‘shin tortgan edi. Lekin Haydar mirzo va Shayximbek mag‘lubiyatga uchrab, Mashhadga qaytgan edilar. N. ularga tasalli berib, yaxshi otlar va qimmatbaho matolar taqdim etib, mehribonlik ko‘rsatadi. Shundan so‘ng yaqin kishilari, Mashhad naqiblari b-n kengash o‘tkazadi. Ular barchalari N.ning Marvga borishi va shoh b-n o‘g‘lini yarashtirib qo‘yishini “din-u davlatning salohi” deb hisoblaydilar va shoir Marvga yo‘l oladi. Yarashuv amalga oshgandan so‘ngra esa Hirotga qaytadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Грантовский Э.А. и др. История Ирана. – М., 1977; Абдураззоқ Самарқандий. Матлаъи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. – Т., 1969; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985.*

Q.E.

ABR – bulut. Tasavvuf istilohida hijob ma’nosida kelib, raqib timsolini o‘zida gavdalantiradi. Haq va banda o‘rtasida parda hisoblanadi. Buning sababi visol bo‘lib, sa’y-harakat va ranj-u mashaqqat orqali bunga erishiladi. A. deganda fayz ham ko‘zda tutiladi. M-n, N. “D.F.”dagi bir g‘azalida ma’shuqaga murojaat qilib: “Bulutday qora sochlaringni yig‘ishtirib olki, biz oshiqlar oy kabi go‘zal yuzingni ko‘rgani kelganmiz”, – deb yozadi:

Bikusho turrayi chun abr, ki mo dilshudagon,
Bahri nazzorayi on ro‘yi chu moh omadayem.

Ad.: *Алишер Навоий. Девони Фоний. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011. Сажжодий. Фарҳанги истилоҳот ва таъбироти ирфоний. – Теҳрон, 1370 (ҳ.-ш.).*

E.O.

ABRAHA – Yaman hokimi (habashcha: Ibrohim). Rivoyatga ko‘ra, Ka’baga hasad qilib, San’o shahrida Qullays nomli muazzam nasroniy ibodatxonasini quradi va xalqni Makkaga bormay, uni ziyorat qilishga da’vat etadi. Lekin Yaman ahli Makkaga haj qilishni tark etmagan. Ka’bani yakson qilsam, hamma men qurgan butxonani tavof qiladi, deb o‘ylagan johil hokim fillar mingan ulkan qo‘shin b-n Ka’baga hujum boshlaydi (Shuning u-n u sohib ul-fil laqabini olgan). Lekin Ka’baga yaqinlashganlarida Alloh taoloning qudrati b-n A. qo‘shini ustiga gala-gala qushlar uchib kelib, tumshuqlarida olib kelgan toshchalarini ularga yog‘dirganlar va fillarni ham, lashkarni ham halok qilganlar. N. “T.M.A.” asarida bu haqda shunday yozadi: “Abraha ul kishidurkim, Makkani buzg‘oli azimat qilib erdikim, Bori taolo tayri Abobilni yiborib, ani va cherikin halok qildi”. Uning qabriga ko‘zi tushgan kishining qo‘li beixtiyor toshga cho‘zilib, unga tosh otar emish. Bu voqea Muhammad (s.a.v.) tavalludidan biroz oldin yuz bergan. Qur’oni Karimning 105-surasi “Fil” nomi b-n atalishi va Muhammad (s.a.v) “Fil” yilida tug‘ilgan deyilishining sababi ham shu.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. – Душанбе, 1987; Бурҳони қотеъ. Жилд 1. – Душанбе, 1993; Ислом (энциклопедия). – Т., 2004.*

E.O.

ABROR (ar.) – yaxshi ishlar qiluvchilar, xayr sohiblari, ko‘ngli pokiza insonlar, solihlar, taqvodorlar. Qur’oni Karimda fazilat, fazilat ahli ma’nolarida qo‘llanadi. Tasavvuf istilohida irfoniy axloq bo‘lib, bu toifaga Alloh sari sayr – sayri ilallohni bosib o‘tib, muayyan darajaga erishgan Xudoning xos bandalari va sayr-u sulukka rahbarlik qiladiganlar kiradilar.

A. – odamlarni ezgu yo‘lga boshlaydigan va ularni kamolotga yetkazadigan kishilar guruhidir.

A. maqomi muqarrablik (Haqqa yaqinlik) ning quyi maqomidir.

Tariqi abror – yaxshi kishilar yo‘li. Haqqa yetish u-n riyozat chekkan va axloqni go‘zallashtirishga intilganlar yo‘li. Qolgan 2 yo‘l ahyor va shuttorlar yo‘lidir. Allohga yaqin bo‘lganlarga abror, ulardan-da yaqin bo‘lganlarga muqarrab deydilar.

Ma’lum bo‘ladiki, N.ning “H.A.” dostoni shunchaki yaxshi kishilar hayrati emas, balki kamolot kasb etib, Haqqa yaqin bo‘lganlar, riyozat chekib, nafsini tarbiyalagan va xulqini go‘zallashtirgan solih kishilar, oriflar, komil insonlar hayratidir.

“N.M.” tazkirasida Abu Hotam Attor haqida ma’lumot berar ekan, “Abu Hotam Attorning zohiri savdogarlarning zohiriga, botini esa, abror (yaxshilar, so‘fiy)lar botiniga o‘xshab ketardi”, – deb ta’riflaydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Сажжодий. Фарҳанги истилоҳот ва таъбироти ирфоний. – Теҳрон, 1370 (ҳ.-ш.); Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005; Комилов Н. Тасаввуф. – Т., 2009.*

E.O.

ABU ABDULLOH ANTOKIY – N. “N.M.” tazkirasida alohida fiqrada tilgan olgan 770 nafar shayxlardan biri. U Bishr Hofiy va Sariy Saqatiyga tengdosh, shayx Horis Muhosibiyning ixlosmand muridi, shayx Fuzayl Ayoz suhbatiga musharraf bo‘lgan. O‘z davrida el orasida shariat ilmi bo‘yicha Ahmad binni Osim Antokiy nomi b-n tanilgan: “Oti Ahmad b. Osim Antokiydur, va qavmning a’yon-u sodotidindur. Shariat ilmig‘a olim, qudamoyi mashoyix bila suhbat tutubdur. Va tobiin atbo’ig‘a musharraf bo‘lubdur. Bishr Hofiy va Sariy Saqatiy aqronida ermish va Horis Muhosibiyning muridi va Fuzayl Ayoz suhbatig‘a yetibdur”. Fiqrada N. uning ma’rifat, faqr va g‘aniy, faqrning manfaati kabi tushunchalar to‘g‘risidagi fikrlarini aytib o‘tgan.

Qizig‘i shundaki, shayx Abu Abdulloh Antokiy to‘g‘risidagi ma’lumotda N. o‘z davri tasavvuf ilmi, olimlari, ma’rifiy suhbat, majlislar xususida ham xabarlar bitgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва табъироти ирфоний. – Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.).*

B.R., Q.E.

ABU ALI FORMADIY (Formad 1016, – Tus, 1084) – Naqshbandiya tariqatining mashhur shayxi, o‘z davrining yetuk voizi va shofiiy mazhabining olimi. A.A.F. zohir ilmlarni, avvalo, Naysoburda Shayx Abu Sa’id Abul Xayrdan, so‘ngra Shayx Abul Qosim Qushayriydan o‘zlashtiradi. Botiniy ilmlarni esa, avvalo, shayx Abul Qosim Gurgoniy Tusiydan, keyinroq Shayx Abul Hasan Xaraqoniydan oladi. Xoja Yusuf Hamadoniy va hujjat ul – islom imom Muhammad G‘azzoliylar A.A.F.ning muridlaridan hisoblanadi. Shayx A.A.F. o‘rta bo‘yli, qoramtir rangli, peshonasi keng, ko‘zlari va kipriklari qop-qora kishi bo‘lib, odamlarga xushmuomala va muridlariga juda mehribon bo‘lgan.

N. “N.M.” asarida A.A.F. haqida ma’lumot bergan: “Oti Fazl bin Ahmaddur. Xurosonning Shayx ush-shuyuxi erdi. Tazkir-u mav’izatda ustod imom Abulqosim Qushayriyning shogirdidur va tasavvufda intisobi ikki jonibdadur. Biri Shayxi buzurgvor Shayx Abulqosim Gurgoniy quddisa sirruhg‘a va yana biri Shayx ul-mashoyix Abulhasan Xaraqoniy rahmatullohg‘aki, o‘z zamonining qutbi erdi”. Shayx A.A.F. Nishopurda ilm o‘qib turgan payti Mehnalik Shayx Abu Said Abulxayr suhbatiga boradi, uni yaxshi ko‘rib qolib, unga murid bo‘ladi. So‘ngra, “ustod Abulqosim Qushayriy xizmatig‘a” boradi va ilmdan qo‘l tortib, sulukka mashg‘ul bo‘ladi. N.ning yozishicha, kunlardan bir kun A.A.F. qalamni siyohdonga botirib, sug‘urib olganida, oppoq bo‘lib, quruq holda chiqadi. Bu holni ustozi Shayx Abulqosim Qushayriyga aytganida, unga shunday javob beradi: “...chun ilm sendin ilik tortti. Sen dog‘i ondin ilik tort va ishga mashg‘ul bo‘l!”. A.A.F aytadiki, shundan keyin “madrasadin chiqdim va xonaqohda sokin bo‘ldim va ustod Imom xizmatida suluk qilur erdim”.

N.ning yozishicha, Imom Qushayriydan keyin Shayx A.A.F. Tuska Abulqosim Gurgoniyning suhbatiga boradi, uning muridiga aylanib, nazariga tushadi va kuyovi bo‘ladi. Shayx Abulqosim Gurgoniy A.A.Formadiyga og‘ir riyozatlar buyurib, uni yetishtiradi. Ma’lum vaqt o‘tgandan keyin odamlarga va’z-nasihat qilish u-n ruxsat beradi. Bundan sal oldinroq Shayx Abu Sa’id Abulxayr Mehnadin Tusga kelganda, A.A.F. uning ziyoratiga boradi. Shayx Abusaid Abulxayr unga qarata: “Ey Abu Ali, bot bo‘lg‘ayki, to‘tidek seni so‘zga kiyurgaylar”, deydi. Shu uchrashuvdan oz vaqt o‘tib, Shayx Abulqosim Gurgoniy unga suhbat qurishni buyuradi. N. ning yozishicha, A.A.F. “so‘z eshigi ko‘nglumda ochildi” degan va bu so‘z b-n laduniy ilm hosil bo‘lganiga ishora etgan. Shuning u-n ham A.A.F. tasavvuf tarixida chiroyli va hikmatli va’z qiluvchi shayxlardan hisoblangan.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва табъироти ирфоний. – Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.); Муҳаммад бин Абдуллоҳ ал-Ҳоний. Одоб. –*

Истанбул, 1995; Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тасаввуф ва тасаввур. – Т., 2010.

S.R.

ABUBAKR MIRZO I (1382–1408) – Amir Temurning nabirasi, Mironshohning o‘g‘li, harbiy sarkarda. 1406–1408-yy.da Iroq va Ozarbayjon hukmdori. Uning qisqa hukmronlik davri, bir tomondan, ukasi Umar mirzo b-n, ikkinchi tomondan, qoraquyunli turkmanlar sardori Qora Yusuf b-n kurashda o‘tgan. 1406-y.da u ukasi Umar mirzo, amakivachchalari Pirmuhammad va Mirzo Rustamlarning birlashgan qo‘shini ustidan g‘alaba qozongan. Shu yilning o‘zida Ars suvi bo‘yida Qora Yusuf b-n urushgan va mag‘lubiyatga uchragan. 1408-y.da ular o‘rtasida ikkinchi marta jang bo‘lgan va u ham Qora Yusufning g‘alabasi b-n tugagan. Shundan so‘ng A.M. Iroq va Ozarbayjonni tashlab chiqib, Kirmonga kelgan, 1408-y.da o‘ldirilgan.

A.M. tarixda o‘zining dovyurakligi, kuch-quvvati, qilich chopishi b-n nom qoldirgan. U she’riyatni sevgan va she’rlar yozib turgan. Shu sababli N. uni “M.N.”ning yettinchi majlisiga kiritgan. Uning shaxsiyati haqida N. “bahodirlug‘i va qilich zarbi Chig‘atoy ulusida mashhurdir” deb yozadi hamda A.M. qalamiga mansub mashhur bir tuyuqni keltiradi. Tuyuq mazkur janrning go‘zal bir namunasidir. She’rning mazmuni diqqatga sazovor. Tuyuq N.ning ta’biricha, “bahodurlug‘ tavrida bitilgan” va er kishi u-n botirlik, g‘urur kerakligi haqidagi fikr unda o‘zining badiiy ifodasini topgan:

Er kerak o‘rtansa, yonsa yolina,
Yora yeb yotsa otining yolina.
It o‘lumi birla o‘lsa yaxshiroq,
Er otonib dushmang‘a yolina.

Tuyuqning tili diqqatga sazovor. Unda asosan turkiy so‘zlar qo‘llangan.

Ad.*: Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Абдураззоқ Самарқандий. Матлаъи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. 2-жилд. – Т., 2008.*

S.G‘., Q.E.

ABUBAKR MIRZO II (1455, Samarqand – 1479, Gurgon) – Sulton Abusaidning o‘g‘li. Otasining hukmronligi davrida Badaxshon hokimi bo‘lgan. Qisqa vaqt Kobulda (1478) va Kirmonda (1479) hukmronlik qilgan. A.M. N. b-n muloqotda bo‘lgan. Bu muloqotlar qachon va qayerda yuz bergani haqida ma’lumotlar yo‘q. Agar ular A.M. Badaxshonda turgan vaqtda bo‘lib o‘tgan bo‘lsa, N. Badaxshonga borgan bo‘lib chiqadi. Lekin ularning Hirotda uchrashgan bo‘lishlari mumkinligini ham istisno qilib bo‘lmaydi. Har holda, N.ning A.M. huzurida bo‘lgan vaqtida yozilgan she’ri saqlanib qolgan. Qit’a janriga mansub ushbu she’r “G‘.S.“ devoniga kirgan. She’rda A.M. N.ga qimmatbaho lojuvard tosh in’om qilgani, lekin uning xazinasida lojuvard topilmagani haqida hikoya qilingan:

Shohi sipehrqadr Abubakr ul shohe –
Kim, ko‘k ravoqi dargohi qadrig‘a toq erur.

Bu charxi lojuvard uza xurshid go‘yiyo,
Ko‘kbo‘z takovarig‘a muzahhab janoq erur.

Bir pora lojuvard sori go‘yi angladi,
Kim bu zaifi xastag‘a ko‘p ishtiyoq erur.

Hukm etti qulig‘aki, taslim aylasun,
Go‘yo vusuli ul kishi ollinda shoq erur.

Yerdin desa qazib chiqaray, yer erur qattiq,
Ko‘k konidin desaki olay, ko‘k yiroq erur.

Oqquyunlilar qo‘shini Kirmondan quvib chiqarganidan so‘ng A.M. Husayn Boyqaro davlati chegarasini buzib o‘tib, Seyistonga kiradi. Bu yerda lashkar to‘plab, Hirotni egallash maqsadida yurish qiladi, lekin Husayn Boyqaro qo‘shiniga dosh berolmay Astrobod tomonga chekinadi.

Xuroson lashkari ta’qib qilib, Gurgon daryosidan o‘tgandan so‘ng Dehiston degan joyda

A.M.ni qo‘lga tushiradi va qatl qilinadi (1479). Manbalarda bu xabar va A.M.ning boshi Hirotga yetkazilganda o‘sha vaqtda shahar hokimi bo‘lib turgan N. hayajonga tushgani qayd etilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985; Абдураззоқ Самарқандий. Матлаъ ас-саъдайн мажмаъ ал-баҳрайн. – Т., 2008.*

Q.E.

ABUBAKR XABBOZ (tug‘ilgan va vafot etgan yili noma’lum, ammo uning Bag‘dodiy laqabi yuzasidan fikrlasak, shayx Bag‘dodda tug‘ilgan degan xulosaga kelish mumkin.) – N. “N.M.” tazkirasida tilga olgan shayxlardan biri. U haqida N. kitobning ikki o‘rnida juda qisqa shaklda muhim ma’lumot yozgan. Birinchidan, tazkiraning “Bu toifaning a’mol-u af’ol va muomilat-u riyozotidin ba’zini zikr qilmoq” faslida “Abubakr Xabboz (q.s.) o‘tmakchilikka mashhurdir”, deb bitar ekan, uning “Kosib Allohning sevgan bandasidir” degan hikmatiga rioya qilib, u kosiblik qilib, kun ko‘rishini aytgan. Ikkinchidan, N. tazkirada “Abubakr Xabboz Bag‘dodiy” sarlavhasi b-n alohida fiqra bitgan va unda A.X. shayx Jaririyning ustozi ekani eslangan hamda uning ahl-u ayol b-n halollik asosida yashash zarurligi to‘g‘risida aytgan fikri keltirilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985.*

B.R.

ABULMUHSIN MIRZO (1478, Hirot – 1507, Mashhad) – Sulton Husayn Boyqaroning o‘g‘li. Marv viloyatining hokimi bo‘lgan. Yakchirog‘ jangida Husayn Boyqaro qo‘shinining ilg‘or qismiga yetakchilik qilgan. Mo‘min mirzo qatl qilingandan so‘ng otasidan norozi bo‘ladi va 1500-y.da ukasi, Mashhad hokimi Kepak mirzo b-n birga isyon ko‘taradi. Husayn Boyqaro qo‘shini Marvni qamal qiladi. Qirq kun davom etgan jangdan so‘ng N.ning ukasi Darvesh Alibek yordamida sulh tuziladi. Bobur Samarqandni egallaganda (1500), A.M. Shayboniyxonga qarshi harakat boshlaydi. Marvdan kelib, Qorako‘lni qo‘lga kiritadi, lekin uzoq ushlab tura olmaydi. Shayboniylar qo‘shini Xurosonga bostirib kelganda, A.M. ukasi Kepak mirzo b-n birga Mashhadda ularga qarshi jang qiladi. Mag‘lubiyat b-n tugagan jangda aka-uka asir olinib, qatl etiladi (1507).

A.M. ijobiy fazilatlarga ega inson edi. Otasi vafotidan keyin u aka-ukalar o‘rtasida birlik bo‘lishiga harakat qildi va Badiuzzamon hamda Muzaffar mirzo Shayboniyxonga qarshi birgalikda yurish qilish u-n chaqirganda darhol yetib keladi. A.M.ga takabburlik, manmanlik begona edi. Bobur 1506-y.da Xurosonga kelib, Husayn Boyqaro o‘g‘illari b-n uchrashganda, A.M. uning istiqboliga birinchi bo‘lib chiqadi. Holbuki, uning yoshi o‘sha yerda bo‘lgan mirzolarnikidan katta edi. Ziyrak Bobur bunga e’tibor qaratgan va “Boburnoma”da shunday so‘zlarni bitgan: *“Dushanba kuni... mirzolar bila muloqot bo‘ldi. Abulmuhsin Mirzo yarim kuruh istiqbol qilib kelib erdi, yetushduk... Ilgarrak kela o‘rduning yovug‘ida Muzaffar mirzo va Ibn Husayn mirzo keldilar. Bular Abulmuhsin Mirzodin yoshqa kichik erdilar, kerakkim burunroq istiqbolg‘a kelsalar edi”*.

N.ning A.M.ga munosabati yaxshi bo‘lgan. “M.”dagi maktublardan birida u A.M.ni madh etib quyidagi baytni bitgan:

Xilofat taxtida andoq quyosh ermas mumkin,
Ki taxti Sanjar uza shoh erur Abulmuhsin.

Ma’lumki, Marv Muizziylar sulolasidan chiqqan mashhur Sulton Sanjarning poytaxti bo‘lgan va shu sababli N. yuqoridagi baytda “taxti Sanjar” iborasini qo‘llagan.

N.ning “S.”sida A.M.ga bag‘ishlangan qism bor. 6 baytdan iborat ushbu qismda N. A.M.ning Marv hokimi ekanligiga ishora qilib, uni “Sanjari soniy” (Ikkinchi Sanjar) deb ataydi. “S.”dagi quyidagi baytlarda A.M. shaxsiga xos xususiyatlarga ishora bor:

Soqiyo, jomi labolab tutqil,
Adab asra-yu muaddab tutqil.

Bodayekim necha yetkursa tarab,
Ortqay tab'ig'a ta'zim-u adab.

Shahzodaga bo'lgan ehtiromini muallif shunday ifodalaydi:

To boqib Marv sori bosh urayin,
Boshni ko'k manzaridin oshurayin.

Sanjari mulkiga bo'lgan voris,
Sanjari soni-yu balkim solis.

Ad.: *Алишер Навоий. Муншаот. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011; Хондамир. Ҳабиб ус-сияр. – Т., 2011; Асадов М. Соқийнома: тарих ва поэтика. – Т., 2020.*

Q.E.

ABULHASAN XARAQONIY (Abulhasan Ali ibn Ahmad) – Eronning Xaraqon degan joyida hijriy 352 (mil. 953-y.)da tug'ilgan va o'sha yerda hijriy 425 (mil. 1034-y.)da vafot etgan. Manbalarda aytilishicha, Boyazid Bistomiy A.X. tug'ilishidan ancha yil oldin Xaraqondagi buyuklar mozorini ziyorat qilishga keladi va bu yerdan buyuk bir avliyo yetishib chiqishini, ismi Ali, kunyasi Abulhasan bo'lishini bashorat qiladi. A.X. yigitlik davrida o'n ikki yil davomida Boyazid Bistomiy qabrini ziyorat qilib, u zotdan irshod va fayz olganlari aytiladi. N. "N.M." tazkirasida bu zotni "O'z ro'zg'orining yagona va g'avsi erdi. Vaqtning qiblasiki, zamonida rihlat anga erdi", deya katta ixlos b-n ta'riflaydi. Asarda muallif A.X.ning Boyazid Bistomiyning ruhoniy shogirdi ekanligini ta'kidlab, jumladan, shunday deydi: "Ul tasavvuf intisobida sulton ul-orifin Shayx Abu Yazid Bistomiyg'a yetar va oning tarbiyati sulukda sulton ul-orifin ruhoniyatidin". A.X.ning ma'rifat va haqiqat sirlarini Shayx Abulabbos Qassobdan o'rganganligi ham tazkirada alohida zikr qilinadi. "N.M."da so'fiy hayotida sodir bo'lgan ibratomuz voqealar hamda shayxning hikmatli so'zlari ham keltirilgan. A.X.ning, ayniqsa, so'fiy va so'fiylik mohiyati haqidagi hikmatlari e'tiborga molik: "Andin so'rdilarki, so'fiy kimdur? Dedi: kishi muraqqa' va sajjoda bila so'fiy bo'lmag'oy va rusum va odot bila so'fiy bo'lmag'oy. So'fiy uldurki, bo'lmag'ay. Hamul debdurki, so'fiy bir kundurki, kunasg'a ehtiyoji bo'lmag'ay va bir kechadurki, oyg'a ehtiyoji bo'lmag'oy va bir yo'qdurki, borliqqa hojati bo'lmag'oy". A.X. o'z nafsiga zulm qiluvchi, har lahzada amallarini taftish qiluvchi valiy edi. Uning "Gunohlarimga boqib, Nuh (a.s.)ning umridek uzun ko'rdim", deya o'zini malomat qilgani manbalarda qayd qilingan. N. ulug' avliyoning jiddu jahd b-n nafs tarbiyasida g'ayrat ko'rsatganligini quyidagicha ta'rif etadi: "Va debdurki, qirq yildirki, nafsim bir ichgucha sovuq suv va achchiq dug' tilar. Hanuz anga bermaydurmen va debdurki, ulamo-yu ibod dunyoda ko'pdur. Sen andin bo'lmoq keraksenki, kunduzni kechaga, kechani kunduzga kelturgaysen. Andoqki, Haq bergangay". A.X.ning qalb tarbiyasida qanday amallarga rioya qilmoq kerakligi haqidagi fikrlari ham tazkirada o'z ifodasini topgan: "...yorug'roq ko'ngul uldurki, anda xalq bo'lmag'ay va ishingning yaxshirog'i uldurki, anda maxluq andishasi bo'lmag'ay va halolroq ne'mat uldurki, kasbing bila bo'lg'ay va rafiqlaring yaxshirog'i uldurki, zindagonligi Haq bila bo'lg'ay". Shuningdek, "N.M."da Shayx Abu Ali Formadiy hamda Shayx Jamoluddin Ahmad Jurfoniy kabi valiy zotlar silsila omonatini A.X. dan olganligi qayd qilingan: "Oti Fazl b. Ahmaddur. Xurosonning Shayx ush-shuyuxi erdi. Tazkir-u mav'izatda ustod imom Abulqosim Qushayriyning shogirdidur va tasavvufda intisobi ikki jonibdadur. Biri Shayxi buzurgvor Shayx Abulqosim Gurgoniy (q.s.)g'a va yana biri Shayx ul-mashoyix Abulhasan Xaraqoniyg'aki, o'z zamonining qutbi erdi". Demak, A.X. o'z jamoasining ma'naviy rahnamosi hamda yo'l ko'rsatuvchi peshvosi bo'lgan. Shu bois N. "L.T." asarida ham valiy zot haqidagi hikoyatni keltiradi. Bu A.X.ning bir murid b-n kechgan suhbati bo'lib,

unda aytilishicha, tolib o‘z ibodatlarining nuqsonli ekanida iblisni aybdor sanaydi, namoz-u zikrlariga aynan u tufayli putur yetayotganligini afsus b-n bayon etadi. Murshidi komil esa shayton ham undan shikoyat qilib kelganligini nadomat b-n bayon qilib, jumladan, shunday deydi:

Har qachon keldim bu sharrun nosg‘a,
Kim solay ko‘nglini bir vasvosg‘a.

Qaysi munkirkim manga maqbul edi,
Ko‘ngli, ko‘rdumkim, anga mashg‘ul edi…

Aylamakni sanga talqinlar base,
Bizni shayton qildi tahsinlar base.

Rahmat ushbu makr ila tazviringa,
Kim degay shaytonki, rahmat piringa.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Фариддидин Аттор. Тазкират ул-авлиё. – Т., 2011.*

Z.R.

ABDULMO‘MIN MAXDUM KOTIB IBN MUHAMMAD SHARIF SAMARQANDIY (XIX asr) – xattot. Buxoro xattotlik maktabining vakili, mashhur xattot Abdullohbek Yakkabog‘iyning shogirdi, nasx va nasta’liqda xushxat bo‘lgan. “X.M.”ni Samarqand shahrida 1256/1840–1841-yy.da nasta’liq xatida, Samarqand qog‘ozida ko‘chirgan, qo‘lyozma oxirida N.ning Lutfiy va Sulton Husayn g‘azaliga bog‘langan muxammaslari mavjud. – T., O‘zR FA ShI. Inv. №11444. 664 varaq.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Муҳаммад Шариф Садри Зиё. Тазкират ал-хаттотин. ЎзР ФАШИ-1, № 1304/III. – В; Муродов А. Марказий Осиё хаттотлик санъати тарихидан. – Т., 1971; Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар, – Т., 1991.*

Muh.A.

ABDURAHIM KOTIB – xattot. Buxoro xattotlik maktabi vakili. Torob (Jondor tumani) da tug‘ilgan, Amir Muzaffarxon davrida yashagan. Shahzodalarga muallim, fozil-u komil, sohibi kashf-u karomat, hofizi Qur’on, nasx (xat) da tez va chiroyli kitobat qiladigan olim bo‘lgan. Nasta’liq xatining qalin va ingichka (jaliy va xafiy) turlarida mahoratli bo‘lgan. Qori Ahmad kotibdan Qur’on va xattotlik san’ati yo‘nalishida ta’lim olgan. O‘sha zamon xattotlari mahoratda uni Ubaydulloxon davridagi Mir Ubaydga tenglashtirganlar, ustozi Ahmad Kotib singari lavvoh, naqqosh, jadvalkash bo‘lgan.

N.ning terma devonini (O‘zR FAShI. qo‘lyozma 2790) nafis nasta’liq xatida kitobat qilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Садр Зиё. Тазкират ул-хаттотин, ШИ, инв. 1304; – М. Ҳакимов, Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. – Т., 1991; Мунировв Қ., Носиров А. Алишер Навоий қўлёзма асарлари каталоги. – Т., 1971.*

Muh.A.

ABDURRAHIM IBN MUHAMMAD FOZIL KOSHG‘ARIY (XIX asr) – Koshg‘ar xattotlik maktabining vakili, olim va fozil, yetti xil xat turida yozgan. Nasta’liq xatini nihoyatda chiroyli va ravon yozgan. N.ning kulliyotini Koshg‘arda kitobat qilgan: – T., O‘zR FAShI. Inv. № 316. 692 varaq. Qo‘lyozma o‘lchovi 30x44 sm. Bu ulkan kulliyot tarkibiga N.ning 18 asari (2 debocha, “X.M.”ning 4 devoni, “M.N.”, “L.T.”, “M.Q.”, “X.”ning besh dostoni, “M”, “X.M.”, “A.”, “V”.) kirgan. Ushbu qo‘lyozma N. kulliyotlarining XIX asrga mansub yagona mo‘tabar nusxasidir. (N. kulliyotining bundan boshqa XVIII–XIX asrlarda tuzilgan nusxalari MDH va xorijiy fondlarda bor-yo‘qligi hozircha ma’lum emas.) A.K. qo‘lyozmani 5 yil 1240–45/1824–30-yy. davomida Koshg‘ar shahrida ko‘chirgan. Asar so‘nggida kitobat yillariga oid ta’rixlar qo‘ygan. Eng so‘nggi sahifada (v. 692 v) kotib “Abdurrahim ibn Muhammad Fozil Koshg‘ariy”

deb imzo qo‘ygan. Qo‘lyozma matni XIX asr Koshg‘ar uslubiga xos yirik, chiroyli nasta’liq xatida bitilgan. Qo‘lyozmadagi har bir asarning boshlanishida zarhal lavha mavjud. Qo‘lyozma o‘yma tamg‘a va tamg‘asimon naqshlar tushirilgan dastlabki muqovada yetib kelgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Садр Зиё. Тазкират ул-хаттотин. ШИ. Инв. 1304; – М. Ҳакимов. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. – Т., 1991.*

Muh.A.

ABDUQAHHOR “JUMABOY” IBN USTOD KO‘HKANI SAMARQANDIY – Samarqand (XIX asr) xattotlik maktabi vakili, olim va mohir xattot, nasx va nasta’liqda yozgan 1819-y. da N.ning “M.Q.” qo‘lyozmasini nasta’liq xatida ko‘chirgan. Qo‘lyozma qog‘ozi, xati va boshqa xususiyatlariga ko‘ra, XIX asr boshlarida Buxoriy nasta’liq xatida kitobat qilingan. O‘zR FAShI. Inv. № 5833. qo‘lyozmalar fondida saqlanmoqda.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Муҳаммад Шариф Садри Зиё. Тазкират ал-хаттотин. ШИ-1, № 1304/III; Муродов А. Марказий Осиё хаттотлик санъати тарихидан. – Т., 1971; – М. Ҳакимов. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. – Т., 1991.*

Muh.A.

ABJAD – arab alifbosidagi harflardan tuzilgan va har qaysi harfning son qiymati osonroq esda qolishi u-n yasalgan 8 ta so‘z birikmasining umumiy nomi. Bu so‘zlar sonlarnigina ifodalaydigan yasama so‘zlar bo‘lib, ularning boshqa ma’nosi yo‘q. Ularning qat’iy tartibi quyidagicha: abjad (1-2-3-4), havvaz (5-6-7), hutti (8-9-10), kalaman (20-30-40-50), sa’fas (60-70-80-90), qarashat (100-200-300-400), saxxaz (500-600-700), zazag‘ (800-900-1000). Ko‘rinib turibdiki, arab alifbosida har bir harf ayni vaqtda ma’lum bir sonni ifodalaydi.

Sharqda, xususan, arab alifbosini qabul qilgan mamlakatlarda harflardan raqam sifatida foydalanish, ma’lum sana va ma’lumotlarni ifodalash keng rasm bo‘lgan. Binobarin, adabiy asarlarda she’rlarda ahamiyatli yoki ahamiyatli bo‘lib ko‘ringan sanalar yuqorida keltirilgan ma’lum harflar, raqamlar orqali ifodalangan. Bu san’atdan N. ham ko‘p foydalangan. M-n, N. “H.S.H.A.” asarida uning vafoti tarixini forsiy ibora b-n “Jannati pokash makon bod” (Pok jannat makoni bo‘lsin!) deb ifodalaydi. Bu iboradan abjad hisobiga ko‘ra hijriy 894-y. chiqadi (milodiy hisob b-n 1488 – 89-y.ga to‘g‘ri keladi). Abjad hisobi b-n tarix chiqarishga oid she’rlar esa “Ta’rix” deb yuritilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳолоти Сайид Ҳасан Ардашер. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т., 2014; Сирожиддинов Ш., Юсупова Д., Давлатов О. Навоийшунослик. Дарслик. – Т., 2018; Жумаева С. Истилоҳ ва маъно. // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2004. № 1.*

Ab.H.

ABULQOSIM BISHR YOSIN (vafoti, 991) N. “N.M.”da ma’lumot berishicha, A.B.Y. shayxlarning donishmandlaridan va avliyolarning ulug‘laridan bo‘lgan. Mashhur tariqat piri, oriflar sultoni Abusaid Abulxayrning ustozi – yoshligida unga ta’lim berib, kelajakda buyuk shayx bo‘lib yetishishini bashorat qilgan. “Asror ut-tavhid”da Abusaid Abulxayr tilidan naql etishicha, u: “Bizning aytgan har bir she’rimiz azizlarning, ko‘proq pirimiz Abulqosimning so‘zlaridir”, – degan ekan. Shundan kelib chiqib, tadqiqotchilar Abusaid va Abulqosim she’rlarini ajratish mumkin emas, A.B.Y. ilk shayx-shoirlardan edi, deydilar.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Шоирони аҳди сомониён. – Душанбе, 1999; Абулқосим Бишр Ёсин. Рубоийлар // Донишмандлар туҳфаси. – Т., 2009.*

E.O.

ABULG‘OZIY XOJA IBN TO‘RAXOJA HUSAYNIY HO‘QANDIY (XIX asr) – xattot. Qo‘qon xattotlik maktabi vakili, Xudoyorxon davrida yashagan. A.X. Qo‘qonning zabardast olimi To‘raxoja Husayniyning o‘g‘li bo‘lib, nasx va nasta’liqda yaxshi yozgan. U Qo‘qon shahrida 1264/1847–48-y.da N.ning “X.”sini chiroyli nasta’liq xatida kitobat qilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-жилдлар. – Т., 2011; Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар, – Т., 1991; Мунировв Қ., Носиров А. Алишер Навоий қўлёзма асарлари каталоги, – Т., 1970.*

Muh.A.

ABUSAID ABULXAYR (taxallusi; to‘liq ismi: Abu Fazlulloh ibn Abulxayr Muhammad ibn Ahmad Mehnaviy) (967–1049, Mehna) – tariqat piri, tasavvuf olimi, mutasavvif shoir.

Zehni o‘tkir va tirishqoq A.A. 11 yoshidayoq xushovoz hofizi Qur’on, zukko she’r muxlisi sifatida tilga tushadi. U Qur’on hofizligini Xurosonning mashhur qorilaridan Abu Muhammad Enoziy, kalom ilmini esa mufti va adib Abusaid Enoziydan o‘rganadi. U 30 ming bayt arabcha she’rni yod bilar, o‘qigan kitoblarini sharhlab va tushuntirib berishda tengi yo‘q edi. Keyin Marvga borib, Abu Abdullo Hazriy huzurida arab tili va islom asoslaridan tahsil oladi. Uning vafotidan so‘ng Abu Bakr Qaffol yonida besh yil davomida fiqhni o‘rganadi. Shu davrda she’r yozishni ham boshlaydi. 22 yoshida Marvda Abu Ali Shabu’iy qo‘lida “Sahihi Buxoriy”ni xatm qiladi. 30 yoshida Saraxsga borib, zamonasining buyuk allomasi Abu Ali Zohirdan shariat asoslari, tafsir ilmi bo‘yicha ta’lim oladi. Uning ilmlarni chanqoqlik b-n tez o‘zlashtirayotganini ko‘rgan va beqiyos iste’dodiga ishongan ustoz uch kunlik saboqni bir soatda berar edi.

Ilmini kamolga yetkazgach, o‘z xonaqohini ochib, muridlar tarbiyasiga mashg‘ul bo‘ladi. Boyazid Bistomiy, Mansur Halloj kabi mashhur tariqat pirlarini o‘ziga ustoz sanab, ularning an’analarini davom ettirgan A.A.ning o‘zi ham yuzlab shogirdlar yetishtiradi. Ular orasida “Abu Ali Farmadiy, “Hujjat ul-islom” Muhammad G‘azzoliy, Ozarbayjonda 400 xonaqoh qurdirgan Abu Nasr Shirvoniy” (H.Homidiy) singari islom va tasavvuf olamida mashhur arboblar bor. Abu Ali ibn Sino b-n bir necha bor uchrashib, suhbatlashgan.

N. “N.M.”da A.A. haqida: “Sultoni vaqt va ahli tariqat jamoli erdi va qulub mushrifi. Va aning zamonida barcha mashoyix anga musaxxar erdilar”, − deb yozadi. U b-n bog‘liq bir necha rivoyatlarni keltirib, “Alarning zikrida qalam ojizdur, bitilgandin mabsutroq tilagan “Nafahot ul-uns”da ko‘rsun” deb, Jomiy tazkirasiga havola qiladi. “N.M.”da keltirilishicha, A.A. tariqatga kirgan paytlarida “Har kecha bir chohdin bosh tuban o‘zlarin osar ermishlar va tongg‘acha zikr aytur ermishlar. Va andoq bo‘lur ermishki, muborak ko‘zlaridin qon kelur ermish”. Bu rivoyat “L.T.” dostonida ham bir qushning yo‘l og‘irligidan nolib, uni bosib o‘tishiga ojizligidan qilgan shikoyatiga javoban Hudhud tilidan keltiriladi. Ishq yo‘lida sayr qiluvchi A.A. yor vaslidan xayrli nasibaga erishadi. Chunki u bag‘riga ishq o‘ti tutashgan lahzadan e’tiboran orom nimaligini bilmas, kun bo‘yi fikr-u yodi yorda bo‘lib, tinmay uning zikrini aytar, kech kirgach esa shaharni tark etib, dashtga chiqib ketar, tashlandiq bir vayronadagi eski quduq ichra boshini pastga osiltirib yotar va tonggacha oh-u fig‘on chekar edi:

Hajr aro yillar bu yanglig‘ chekti hol,
To yetishti og‘zig‘a jomi visol.
Ishq aro budur eranlarning ishi,
O‘lmayin topmas bu davlatni kishi.

Naql qilishlaricha, biri – zohiriy (dunyoviy), ikkinchisi – botiniy (ilohiy) ilmlarda tengsiz bo‘lgan ikki ulug‘ zot – Abu Ali ibn Sino va A.A. bir-birining ovozasini eshitib, Nishopur shahrida uchrashadilar. Olim va Shayx suhbati uch kecha-kunduz davom etadi. Shundan keyin shogirdlari Ibn Sinodan: “Shayx haqidagi fikringiz qanday?” – deb so‘raganlarida: “Har neniki, men bilsam, u

bilib, ko‘rib turar ekan”, – deb javob beradi. “Alloma haqidagi fikringiz qanday?” – deb muridlari A.A.ga murojaat qilganlarida esa: *“Har neniki, men his qilsam, u biladi”*, – deydi. U kishi bilgan narsani biz ko‘rib (bilib) turar ekanmiz, A.A. Nishopur va Omul shaharlarida ham bir muddat yashab, xalqni Haq yo‘liga hidoyat qilgan, otashin va’zlar o‘qib, minglab muxlislar orttirgan.

Bundan tashqari, olimning ibn Sino b-n arab tilidagi yozishmalari ham saqlanib qolgan. Ularni mashhur sharqshunos, adib Abdusodiq Irisov o‘zbek tiliga tarjima qilib nashr ettirgan.

Sulton ul-orifin degan sharafli unvonga sazovor bo‘lgan, A.A., Shayx Abusaid Mehnaviy (ko‘pgina adabiyotlarda Mayhaniy) nomlari b-n musulmon olamida shuhrat qozongan bu ulug‘ inson Mehnada vafot etgan. Uning qabri ustiga saljuq sultonlari tomonidan tiklangan maqbara hozir ham mavjud – mahalliy aholi “Mona bobo mozori” deb atashadi.

Naql qilishlaricha, A.A. nafaqat donishmand, balki yaxshigina tab’i nazmi bor, o‘zi dilkash va suhbati huzurbaxsh kishi bo‘lgan. Eronda uning 720 ruboiysi va parokanda she’rlarini o‘z ichiga olgan “Suxanoni manzumi Abusaid Abulxayr” to‘plami hamda shayxning so‘zlari va holatlari bayoni, u haqdagi hikoyatlar asosida tartib berilgan “Asror ut-tavhid” nomli ikki jildlik manoqib nashr etilgan. Xususan:

Havro ba nazorai nigoram saf zad,
Rizvon ba ajab bimondu kaf bar kaf zad.
On xoli siyah bar on rux mutraf zad,
Abdol za bim chang dar Mushaf zad.

Tarj.: Hurlar nigorimni ko‘rish uchun saf tortdilar. Rizvon (jannat eshik og‘asi) ham hayratlanib, qarsak chalib yubordi. U qora xol (mahbuba) yuzlariga parda tortganida abdol (Xudoning xos bandalari, yaqinlari) qo‘rquvdan Qur’onga chang soldi”) ruboiysi shoirga favqulodda shuhrat keltirgan. Bu ruboiyni Amir Temur ham yod bilgan. Mazkur ruboiy sharhiga bag‘ishlab Sayid Ne’matulloh Valiy uch risola yozgan. Amir Sayid Qosim Anvor, Shayx Ozariy va Xoja Ahror Valiy ham unga maxsus risola bag‘ishlaganlar.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Суханони манзуми Абусаид Абулхайр. – Теҳрон, 1998; Асрор ут-тавҳид фи мақомоти шайх Абусаид. – Теҳрон, 1998; Абусаид Абулхайр. Рубоийлар // Муҳаббат тароналари. – Т., 2005; Донишмандлар туҳфаси. – Т., 2009; Абу Сахыт Абул Хайр: его жизнеописание и творчество. Ашгабат, 1999; Ҳомидий Ҳ. Тасаввуф алломалари. – Т., 2004; IX-XVII асыр туркмен эдебиятынын шахырлары. Справочник (Чапа тайярлаян С. Дурдыев). Ашгабат, 1967; Очилов Э. Муборак сарчашмалар. – Т., 1997; Валихўжаев Б. Хожа Аҳрор тарихи. – Т., 1994.*

E.O.

AVAZBERDI IBN TILOVMUHAMMAD BESHARIQIY – xattot. A. nasta’liq va nasxda chiroyli yozgan. N.ning “X.”, “L.T.”, “N.Sh.”, “T.A.H.”, “T.M.A.”, “H.S.H.A.”, “H.P.M.” asarlarini o‘z ichiga olgan qo‘lyozma to‘plamni ko‘chirgan. Sankt-Peterburg FA Sharqshunoslik instituti. Qo‘lyozma E 1. 323 varaq. o‘lchovi 30x47,5 sm. Xo‘qand shahrida (1240/1824-y.) go‘zal nasta’liq xatida kitobat qilingan.

Ad.: *Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. – Т., 1991.*

Muh.A.

AVAZ O‘TAR (1884–1919, Xiva) – shoir. Otasi sartarosh Polvonniyoz O‘tar o‘z davrining ma’rifatli kishilaridan biri bo‘lib, o‘sha davrning shoir-u olimlari b-n yaqin, Ogahiy, Komil kabi mashhur shoirlar ishtirokida o‘tadigan she’riyat kechalarida qatnashib yurar edi. Bunday davralar ba’zida usta O‘tar xonadonida ham o‘tib, ular yosh Avazning adabiyotga

bo‘lgan qiziqishi oshishiga sabab bo‘lgan. U 8 yoshida maktabga qatnaydi, keyin madrasada tahsilini davom ettiradi. Sa’diy, Hofiz, Jomiy, N., Fuzuliy, Mashrab, Amiriy kabi salaflari, Munis, Ogahiy, Tabibiy, Komil kabi zamondoshlari ijodini sevib mutolaa qiladi, ularga ergashadi, g‘azallariga tatabbu’lar yozadi, muxammaslar bog‘laydi. Sekin-asta shuhrati oshib, shoir sifatida taniladi va Muhammad Rahimxon II tomonidan saroyga da’vat qilinadi. Bu yerda u ko‘p vaqtini xonlik kutubxonasidagi kitoblar mutolaasi b-n o‘tkazadi. Saroy shoirlariga Ahmad Tabibiy bosh edi. Tabibiy “Majmuat ush-shuaro” tazkirasida uni iste’dodli shoir sifatida e’tirof etib, “Nazm aro fozili bebaho” deb umid bildirganida A.O‘. 21 yoshda edi. Bayoniy “Shajarayi Xorazmshohiy”, Jumaniyoz Xivaqiy “Tarixi gulshan” asarlarida A.O‘.ning kelajagiga umid b-n qaraganlar.

A.O‘. 1908-y.da she’rlarini to‘plab, 2 ta devon tuzadi va xattot Mulla Boltaniyoz Qurbonniyoz o‘g‘liga kitobat qildiradi. Bu devonlar hozirda Beruniy nomidagi Sharqshunoslik markazining qo‘lyozmalar fondida saqlanadi. 942 raqamli inv.da saqlanayotgan birinchi devon 232 varaqdan iborat bo‘lib, 836 g‘azal, 3 mustazod, 9 murabba, 10 musaddas, 6 musamman, 6 tarje’band, 5 soqiynoma, 92 ruboiy, 4 qasida, 28 qit’a, “Faloniy” turkumida yozilgan satirik she’rlar jamlangan. 7102 raqamli ikkinchi devon esa 209 varaqdan iborat bo‘lib, 959 g‘azal, 1 mustazod, 31 muxammas, 3 musaddas, 3 qasidadan tashkil topgan.

Xorazm adabiy muhitining Munis, Ogahiy, Tabibiy, Komil kabi shoirlari qatori A.O‘. ham N.ni ijod yo‘lida o‘ziga pir-u ustoz deb biladi. Cheksiz iftixor va yuksak mas’uliyat b-n:

Erursan o‘z adoning shoiri sardaftari,
tong yo‘q,
Avaz, bo‘lsa Navoiy daftari
monandi devoning, –

deb yozgan A.O‘. ijodini unga N.ning ta’siri nuqtayi nazaridan quyidagi jihatlardan o‘rganish mumkin:

– A.O‘. ijodida navoiyona ohanglar;

– A.O‘.ning N. g‘azallariga tatabbu’lari;

– A.O‘.ning N. g‘azallariga muxammaslari;

– A.O‘.ning N. ta’sirida yaratgan “Faloniy” turkumidagi qit’alari;

– A.ning N.ning “X.”sidan ta’sirlanib va ilhomlanib tarje’band shaklida yozgan “Tarje’bandi xomisa” asari;

– N. qo‘llagan vazn, qofiya va radifda she’r yozish, N.ga xos jumlalar tuzish, N. qo‘llagan so‘z va ibora, timsol va tashbehlarni qo‘llash.

A.O‘. devonini varaqlar ekan, N. ta’sirida yaratilgan ko‘plab baytlarga duch kelamiz. Jumladan, A.O‘.ning:

Barmog‘in tishlab qolur hayratda
gar naqqoshi Chin,
Ko‘rsa suratdek tutub,
ey shayx barno, surating, –

bayti N.ning:

Keldi Chin naqqoshi ul yuz
naqshini qilmoqqa tarh,
Chehra ochib naqshi devor
aylading naqqoshni, –

baytidan ilhomlanish samarasi ekanligi yaqqol ko‘rinib turibdi.

Yoki:

Bo‘lub begonalarni oshnosi ul jafogustar,
Qilur begonalig‘ rasmini doim oshnolarg‘a, –

bayti salafining:

Begona bo‘luptur oshnodin,
Begonag‘a oshno bo‘luptur, –

bayti ta’sirida shakllantirilgani shubhasiz.

A.O‘. N.ning “Aylasa”, “Aylab”, “Hargiz”, “Bo‘lmangiz”, “Arzimas”, “Gul”, “Abas”, “Hodis”, “Bois”, “Oqibat”, “Xat”, “Tut” “Asru”, “Shayx”, “Talx”, “Gustoh”, “Tama’”, “Firoq”, “Ishq”, “Dog‘”, “Subh” kabi radifli va radifsiz ko‘plab g‘azallariga tatabbu’ qilgan. Yana “El”

radifli g‘azaliga “Xalq”, “Istangiz” radifli g‘azaliga “Istasun” radifli ba’zi o‘zgarishlar b-n o‘ziga xos tatabbu’lar yozgan. Bu tatabbu’larida u buyuk salafi fikr-u g‘oyalarini davom ettirib, rivojlantirib, ularning yangi qirralarini ochishga harakat qiladi, ularga o‘z davri ruhi va kayfiyatini singdiradi. Aytaylik, N.ning “El” radifli g‘azaliga A.O‘. “Xalq” radifli tatabbu’ yozib, ishqiy mavzuni ijtimoiy mavzuga aylantiradi:

Yo‘qturur olamda ahli ishqdek bechora el,
Hajr zulmi birla xonumonidin ovora el.

Yo‘q jahon mulkida bizdek
ojiz-u bechora xalq,
Zulm tig‘i birla bo‘lg‘on bag‘ri
yuz ming pora xalq.

Ko‘rinib turganidek, har ikki g‘azal ham bir vaznda – ramali musammani maqsur (foilotun foilotun foilotun foilun). Qofiya tizimi ham bir xil (bechora, ovora, pora, chora...). A.O‘. tatabbu’ qilingan g‘azaldagi “el” radifini “xalq” b-n almashtirgan. Shunga muvofiq ravishda matla’dagi “ahli ishqdek bechora” jumlasi “bizdek ojiz-u bechora”, “ hajr zulmi” esa “zulm tig‘i”ga aylangan.

A.O‘.ning N.ning “Shayx” radifli g‘azaliga yozgan tatabbu’sida ham shunday mushtaraklikni ko‘ramiz. N. 10 baytli g‘azalining 8-baytida bir ozoda shayxni topsam, unga qo‘l berib, bandasi bo‘lar edim degan orzusini izhor etsa, Avaz unga qilgan 9 baytli tatabbu’sining maqta’sida agar dunyoda biror ozoda shayx topsang, uning xizmatini qilib, duosini ol, degan tilakni bildiradi:

Irodattin o‘lg‘ay edim bandasi,
Agar topsam erdi bir ozoda shayx.

Avaz, xizmat aylab, duosini ol,
Jahon ichra topsang bir ozoda shayx.

N. g‘azalining maqta’dan oldingi baytida “Xuddi kotib yozgan “vafo” so‘zidagi “f” harfi ustidagi nuqta kabi ishq o‘tining dog‘ini vafo ahlida istangiz” degan fikr ifodalangan bo‘lsa, tatabbu’ g‘azalning ayni baytida “Kimki nogoh vafosiz yorni har qancha istasa, bunday badkirdorni jafo ahli orasidan istasin” degan fikr ilgari surilganligini ko‘ramiz.

A.O‘. adabiy merosi bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan M.Yo‘ldoshevaning aniqlashicha, shoir devonlari qo‘lyozmalarida jami 215 ta muxammas mavjud bo‘lib, ulardan 39 tasi turli nashrlarda e’lon qilingan. Ana shu 39 muxammasning 10 tasi N. g‘azallariga bog‘langan. U ustozining “Sho‘x ikki g‘izolingni noz uyqusidin uyg‘ot”, “Menda bir o‘tdurki, gar dam ursam aflok o‘rtanur”, “Vodiyi hajringda bir dam qon yutardin qonmadim”, “Bu oqshom holima sham’ o‘rtanur, parvona ondin ko‘b”, “Ey ko‘ngul, gar kimsa ahvoling demas yor ollida”, “Ko‘zung ne balo qaro bo‘lubdur”, “Muvofiq kiydilar, bo‘lmish magar Navro‘z ila bayram”, “Ulki solg‘ay shu’la a’zosig‘a o‘tlug‘ ohlar”, “Tun oqshom keldi kulbam sori ul gulrux shitob aylab”, “Oraz-u xolingni bir dam ko‘rmasam, ey dilrabo”, “Dayr aro mug‘bachadin sog‘ari mastona kerak” misralari b-n boshlanadigan g‘azallariga go‘zal taxmislar bog‘lagan. Bu taxmislarda A.O‘. ulug‘ so‘z san’atkori fikrlarini rivojlantirish, yangi qirralarini ochish, ularni to‘ldirish va boyitishga muvaffaq bo‘lish orqali shoirlik mahoratining o‘ziga xos qirralari namoyon bo‘lganligini ko‘rish mumkin.

Muxammas shunday daraxtki, unga payvand qilingan shoxlar bilinmay ketishi kerak. Agar ajralib tursa, bu xuddi go‘zal libosga qo‘yilgan yamoqqa o‘xshab qoladi. Ayni jihatdan muxammas xuddi bir kishining qalamidan chiqqanday taassurot qoldirishi kerak. A.O‘. muxammaslari bu fikrimizning yorqin dalilidir. Chunonchi, quyidagi bandda A.O‘. tomonidan qo‘shilgan misralar N. bayti u-n o‘ziga xos zamin bo‘lib xizmat qilgan:

Bori so‘zini ahli nazm nazmi silkiga terdi,
Tutib ul mah vafo tavrini bu tun bazmima kirdi,
Hamadin oni mushtoqi mani zor-u hazin erdi,
Kelib o‘lturdi-yu, ilgim tutub yonida er berdi,
Takallum boshladi har lafzidin durri xushob aylab.

“Faloniy” turkumidagi qit’alarida A.O‘. o‘z zamonidagi zolim va adolatsiz amir-amaldorlar, yaramas va muttaham kimsalarni ayovsiz fosh etib, o‘zining qanchalik jasoratli va isyonkor shoir, tili o‘tkir hajvchiligini namoyon qilgan. Lekin bunday turkumni ham o‘z vaqtida N. boshlab bergani ma’lum. U qator qit’alarida qahramoni nomini yashirib, uni Faloniy deb atagan edi. Jumladan, “F.K.” devonidagi “Birov bobidakim, bu saroyin sotib, fisq asbobi tuzdi va bu fisq asbobi bila ul saroyin buzdi” sarlavhali qit’ada o‘qiymiz:

Faloni mardak ar sotti saroyin,
Demakim, ul saroyin yaxshi tuzdi.

Qilib ikki saroyig‘a ajab ish,
Bu birni sotti-yu, ul birni buzdi.

Lekin N.ning “Faloniy” nomli qit’alari bir nechtagina bo‘lsa, A.O‘. bunday qit’alarning butun boshli bir turkumini yaratdi. Ayomiyning ma’lumot berishicha, uning bunday she’rlari adadi ellikka yetadi: “Avaz “Falon” obrazi vositasida salbiy tiplar, obrazlar galereyasini yaratib, ular orqali muayyan shaxslarni nishonga oladi”. M-n:

Falonikim suxanchinlig‘ni rasmin
o‘zga qilmish fan,
Solurg‘a ahli olamni boshig‘a
bul’ajab savdo –
Ayirmoqg‘a ota birla o‘g‘ulni
bir-birisidin,
Birin bir aybini ming aylab
aylar birig‘a ifsho.

Onosig‘a qizin dushman qilur,
qizg‘a onosini,
Debon yolg‘onni chin monand
bo‘hton aylabon go‘yo.

Xudo qodir erurkim fosh etib
asrorini oning,
Iki olamni mulki ichra,
tong yo‘q, aylasa rasvo.

A.O‘. N. “X.”sidan ta’sirlanib, besh doston mutolaasidan olgan ilhomlari va chiqargan xulosalari asosida besh tarje’band – “Tarje’bandi xomisa” yozgan. Ularning har biri bir doston vaznida bo‘lib, jami 532 misradan iborat. M.Yo‘ldoshevaning yozishicha, O‘zR FA Qo‘lyozmalari fondida inv. 942-raqami b-n saqlanayotgan qo‘lyozma devonda tarje’bandlar quyidagi tartibda berilgan:

1. Tarje’bandi Avaz “Farhod-u Shirin” vazni.
2. Tarje’bandi Avaz “Bahrom Go‘r” vazni.
3. Tarje’bandi Avaz “Layli, Majnun” vazni.
4. Tarje’bandi Avaz “Hayrat...” vazni.
5. Tarje’bandi Avaz”... Iskandar” vazni”.

Bu adabiy ta’sir tarixida yangi hodisa bo‘lib, boshqa shoirlar ijodida uchramaydi.

Bundan tashqari, A.O‘. ijodida N. qo‘llagan so‘z va iboralar, timsol-tashbehlardan foydalanish, misra, bayt va butun boshli g‘azal yoki ruboiyni N.ga o‘xshab shakllantirish, navoiyona uslubdan foydalanish kabi adabiy ta’sir izlarini ko‘ramiz.

Ad.: *Алишер Навоий. ТАТ. 10 жилдлик, 1-10-жилдлар – Т., 2011; Аваз Ўтар. Девон. – Т., 1976; Аваз Ўтар. Сайланма. – Т., 1984; Эркинов С., Мўминова В. Аваз Ўтар ўғли // Ўзбек адабиёти тарихи. 5-жилд. – Т., 1980; Қобулов Н., Мўминова В., Ҳаққулов И. Аваз ва унинг адабий муҳити. – Т., 1987; Юлдашева М.Т. Аваз шеъриятида анъана ва маҳорат. Ном. дисс. авф. – Т., 2006.*

E.O.

AVVAL (Al-Avval) – Allohning ismlaridan biri. Qur’oni Karimda boshqa ismlar b-n birga bir marta keladi. Ma’nosi: birinchi, avvalgi, boshlang‘ichi bo‘lmagan, azalgi, hamma narsadan avval, boshlanishi chegarasiz, ya’ni uning mavjudligining chegarasi yo‘q va h. Alloh hamma narsadan avval bor bo‘lgan, azaliy Zot bo‘lib, Undan avval biron zamon o‘tgan emas. U hamma narsadan avvaldir, ya’ni barcha mavjudotlar yo‘qligida Alloh bor edi. Mavjudotlarni al-Avval sifatiga ega bo‘lgan Alloh yaratgan. Lekin Alloh-

ning vujudga kelishining boshlanishi yo‘q, uning o‘zi avvaldir. Undan avval borliqda biror narsa bo‘lmagan, U zoti va sha’ni ila barcha narsadan avval kelgani b-n oliydir. Al-Avval degani boshqa hamma narsa unga borib taqaladi yoki natijaga erishishdagi asosiy boshlanish nuqta Udir. Ya’ni, Alloh taolo barcha narsaning avvalgi sababchisidir.

N. “H.A.”ning “avvalgi munojot”ida Allohning “al-Avval” sifatini zikr qilib, avval ham, oxir ham, o‘rtaliq ham, barchaning ko‘zi, ko‘z qorachig‘i (asl va mohiyati) ham Uning o‘zi ekanligini ta’kidlaydi:

Ey sanga mabda’da abaddek azal,
Zoti qadiming abadiy lam’yazal.

Ne bo‘lub avvalda bidoyat sanga,
Ne kelib oxirda nihoyat sanga.

Avval o‘zung, oxir-u mobayn o‘zung,
Borchag‘a xoliq, borig‘a ayn o‘zung.

N. keyingi satrlarida butun borliqda faqat Allohning o‘zigina bor bo‘lgani, o‘z ishqi, husni va kamolini namoyish qilish u-n yer va osmondagi son-sanoqsiz g‘aroyib narsalarni ko‘zgu sifatida paydo qilganini san’atkorona tasvirlaydi. Yaratiqlarning bari, Haq jamolining ko‘zgusi, uning borligi va birligini o‘zida aks ettiradigan oynalar bo‘lib jilva qilardi.

A. so‘zi insonlarga nisbatan ishlatilganda, biror voqeaning boshlanishi, ilk holati, ma’lum bir zamon, vaqt, maqsadni bildiradi. “...avval kishikim, nohaq qon qildi (to‘kdi) Qobil erdi”, (“Tarixi anbiyo va hukamo”),” Bu martaba (tavba) tariqat ahlining avvalg‘i gomi (qadami)dur va maqsad vodiysining avvalgi manzilig‘a xiromidur” (Mahbub ul-qulub”)

N. Allohning avval sifatiga to‘xtalar ekan, dunyodagi narsalarning, xususan, insonnning yaralishdan maqsad va mohiyatini ham bayon qilib o‘tadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Ислом энциклопедияси. – Т., 2017; Шайх Усмонхон Темурхон Самарқандий. Тафсири ирфон. 6-жилд. – Т., 2019.*

S.R.

AVLIYO (ar. “valiy”ning ko‘pligi) – Islom aqidasiga ko‘ra, A. kalimasi Xudoga yaqin odam, Xudoning do‘sti deganidir. N.ning “N.M.” tazkirasida aytilishicha, hazrat Payg‘ambarimizdan keyin irshod ishlari, ya’ni xalqni din-u diyonat yo‘liga boshlash xulafoi roshidin (choryorlar)ga, sahobalarga va ulardan keyin, asosan, avliyolar zimmasiga tushgan.

A.lar Allohning zoti va sifatlarini yaxshi bilgan, uning buyruqlarini bajarib, gunoh ishlardan, dunyo lazzati va shahvoniy havaslardan o‘zini saqlovchi, ilm-u ma’rifati, riyozati, taqvosi va qaysidir ezgu ishi tufayli Allohga yaqin bo‘lib qolgan, duolari mustajob, xoksor va sunnatga qattiq amal qiladigan, tasavvufdagi hol va maqomlarni egallagan kishilardir. Ba’zi A.lar to‘g‘ridan to‘g‘ri avliyo, valiy kabi sifatlar b-n tilga olingan. Nizomiddin avliyo, Xoja Ahrori valiy kabi. A.larning “qutb”, “g‘avs”, “nuqabo”, “nujabo”, “imomayn”, “abdol”, “avtod”, “majzub” kabi o‘ziga xos darajalari bor. Qur’oni karimning “Yunus” surasi, 63-oyatida Avliyolar haqida**:** *“Ogoh bo‘lingizkim, albatta, Allohning do‘stlariga xavf-xatar yo‘qdir va ular g‘amgin ham bo‘lmaydilar”,* deyiladi. Imom Buxoriy va Imom Nabaviylar keltirgan bir hadisi qudsiyda Abu Hurayra raziyallohu anhuning rivoyatiga ko‘ra, Rasululloh (s.a.v.) shunday deganlar: Allohu taolo aytdiki: “Har kim mening valiy bandalarimdan biriga dushmanlik qilsa, muhaqqaq men unga harb (urush) ochgayman. Hech bir bandam unga farz qilingan narsalardan boshqa sevimli bir amal va ibodat b-n Menga yaqinlasha olmagay. Bandam menga nafl ibodatlar b-n ham yaqinlashgay. Nihoyat, uni sevgayman (yaxshi ko‘rgayman). Bas, uni sevdimmi, endi Men u bandamning eshitadigan qulog‘i, ko‘radigan ko‘-

zi, shiddatla (mahkam) tutadigan qo‘li va yuradigan oyog‘i bo‘lgayman. Agar Mendan biror narsa so‘rasa, o‘shani bergayman. Va agar Mendan panoh tilasa, albatta, uni himoya etgayman”.

A.lik payg‘ambarlik darajasidan keyin turadi. A. hech qachon payg‘ambar darajasiga yetolmaydi. Hanafiy mazhabida ularning qabrlarini ziyorat qilish ibratli va savobli ishlardan hisoblanadi. Tasavvufiy asarlarda va tazkiralarda A.larning hayot va faoliyatlaridan, kashf-u karomotlaridan bahs yuritilgan. N. “L.T.” dostonida Farididdin Attorni faqat sermahsul adibgina emas, balki avliyo ekanini ham eslatib o‘tadi:

Murshidi atvor-u qutbi avliyo,
Ko‘nglida sham’i hidoyatdin ziyo.

Kashfi asrori haqoyiqda farid,
Nutqidin ahli haqiqat mustafid.

Ahli irfon soliki atvori ul,
Ma’rifat bozorining Attori ul...

N.ning avliyolar zikriga bag‘ishlangan maxsus asari “N.M.”dir. Unda 770 ta shayx va avliyolar haqida ma’lumot bergan. Asarining so‘zboshisida A.lar ahamiyat beradigan jihatlarga to‘xtalib, bu ish (tariqat yo‘li)ning boshi tavba, shariat rioyati, avvali shahodat kalimasi, saloti xamsa, zakot, ro‘za, haj, tariqat odobi, rizo, sabr, sidq va azim riyozatlar ekanini ta’kidlaydi.

Oriflar nazdida, A. anbiyodan keyin turadi. N.ning “N.M.” tazkirasi muqaddimasida keltirilishicha, Muhammad (s.a.v.) – Allohning so‘nggi rasuli. Payg‘ambar (s.a.v.) olamdan o‘tgach, islom olamiga u zotning noiblari bo‘lmish xalifalar rahnamolik qildilar. Xalifalardan keyin esa Haq yo‘lidan adashganlarni to‘g‘ri yo‘lga solish avliyo zimmasiga tushdi. Bu vazifani ular endi to qiyomatga qadar bajarishlari lozim bo‘ladi. Valiylarning asrlar davomida jamiyat hayotida rahnamolik rolini o‘ynab kelganliklari, hukmdorlar va xalqning alohida hurmat-ehtiromiga sazovor bo‘lganliklarining sababi shunda.

N. Shayx Abulmakorim Ruknuddin Alouddavla Simnoniy zikrida yozadi: “Ham alar debdurlarki, Hakim Tirmiziy va jamoate mag‘oribadin debdurlarki, “avliyolikning boshlanishi payg‘ambarlikning oxiridir”. Shuningdek, N. A. larga xos bo‘lgan: yashirin narsadan ogoh bo‘lish, uzoq masofani bir zumda bosib o‘tish, bir vaqtni o‘zida bir necha joyda paydo bo‘lish, suv ustida yurish, o‘tda yonmaslik, havoda uchish, duoning ijobat bo‘lishi kabi bir qator karomatlar zohir bo‘lishini eslatib o‘tadi. A.lar dunyo turguncha bor bo‘ladilar va o‘z vazifalarini bajaradilar.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Ислом. Энциклопедия. – Т., 2017; Рафиддинов С. Тасаввуф ва Нақшбандийлик. (манбалар ва ҳикматлар). – Т., 2019; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва таъбироти ирфоний. – Теҳрон, 1370 (ҳ.-ш.); Раҳимов К. Хожагон-нақшбандия тариқати ва етти пир. – Т, 2020; Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т., 2014.*

E.O., Z.R.

AVTOD (ar. – tayanch, ustun) – avliyoulloh toifasidan bo‘lib, valiylikning eng yuqori darajasiga erishgan so‘fiy. Ular 4 ta bo‘lib, har biri dunyoning bir tomoniga mas’ul bo‘ladi. Rivoyat qilishlaricha, A.lar har kecha dunyoni kezib chiqishlari lozim bo‘lgan, ularning nazari tushmagan yerlarda esa halovat va yomonliklar sodir bo‘lgan. “N.M.”da keltirilishicha, Bob Farg‘oniy haqida “Kashf ul-mahjub” sohibi der ermishki, ul avtod ul-arzdindur”. Abdurahmon Jomiyga bag‘ishlangan marsiyasida esa o‘z ustozini “Qutblar ruhi istiqbolingga peshvoz chiqishdi, avtodlar joni sening xoki poying bo‘lishdi”, – deb ulug‘laydi:

Ro‘hi aqtob rasidaand ba istiqbolat,
Joni avtod fitodaand ba xoki poyat.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Комилов Н. Тасаввуф. – Т., 2009;*

Исҳоқова З. Тасаввуф таълимотида орифлик ва валийлик талқини. – Т., 2011; Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд. 1. – Душанбе, 1987; Сажжодий. Фарҳанги истилоҳот ва таъбироти ирфоний. – Теҳрон, 1370 (ҳ.-ш.); Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005.

S.R., E.O.

AVFIY MUHAMMAD (taxallusi; to‘liq ismi: Nuriddin Muhammad ibn Tohir ibn Usmon Buxoriy, taxminan 1172/76, Buxoro – 1233/42, Hindiston) – shoir, adib, adabiyotshunos olim, tarjimon. U iste’dodli shoir ham bo‘lib, ijodiga mansub parchalar yetib kelgan. A.ning nasabi Muhammad (s.a.v.)ning sahobalaridan Abdurahmon ibn Avfiyga borib bog‘langan. Shuning u-n bu xonadon a’zolari Avfiy laqabi b-n mashhur bo‘lganlar.

Sharq tazkirachiligining asoschilaridan bo‘lgan A.ning “Lubob ul-albob” tazkirasi unga olamshumul shuhrat keltirdi. Chunki ungacha yaratilgan tazkiralar bizgacha yetib kelmagani u-n u mo‘g‘ullar istilosigacha bo‘lgan davrda Movarounnahr, Xuroson, Iroq, Eron, Hindistonda yashab ijod etgan adabiyot va madaniyat namoyandalari haqida ma’lumot beruvchi yagona va muhim manba hisoblanadi. Tazkira 2 jild, 12 bobdan iborat. 1-jild 7 bobdan iborat bo‘lib, dastlabki 2 bobda muallif she’r fazilati va shoirlik salohiyati haqidagi qarashlarini bayon qiladi, 3–4-boblarda forsiy tilda yaratilgan ilk she’r va shoir xususida yozadi. Qolgan 3 bobda esa asli shoir bo‘lmasalar ham, ba’zan she’r yozgan va ilm-u adab ahliga homiylik qilgan podshoh-u vazirlar, amir-u amaldorlar va fazl ahli haqida ma’lumot beradi. Shu tariqa unda 130 nafar shoir yoki tab’i nazm sohibi va adabiyot muhiblari haqida fikr yuritiladi. 2-jild 5 bobdan tashkil topgan – unda IX asr boshlaridan XIII asr 1-choragigacha yashab o‘tgan 169 shoirning hayoti va ijodiy merosi to‘g‘risida ma’lumot beriladi.

N. “M.N.” nomli tazkirasi b-n “Lubob ul-albob” an’anasini davom ettiradi. “M.N.” haqida yozgan olimlar bu faktni alohida uqtirib o‘tadilar. Lekin A.M.dan farqli o‘laroq, N. o‘z tazkirasini, asosan, zamondoshlariga bag‘ishlaydi va uni o‘z ona tili – o‘zbek tilida yozadi.

A.M. tazkirasi kompozitsiyasining tamoyili – shoirlarni jo‘g‘rofiy hududlar bo‘yicha muhitlarga ajratib joylashtirish an’anasini davom ettirgan holda N. Xuroson, Movarounnahr (Xurosondin ko‘zga mamolik...) shoirlariga alohida bob – “majlis”lar ajratadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Бертельс Е.Э. История персидско-таджикской литературы. – М., 1960; Болдырев Н. Персидские переводы “Маджалис ан-нафаис” Алишера Навои. Ученые записки ЛГУ. Серия востоковедческих наук. 1952. 128. Вып. 3. Муҳаммад Авфий. Лубоб ул-албоб. – Теҳрон, 2002; Нодир ҳикоятлар. – Т., 1977; Ҳикоятлар ва ривоятлар. – Т., 1983; Муҳаммад Авфий // Адабиёти форсу тожик дар асрҳои XII–XIV. – Душанбе, 1983; Ҳомидий Ҳ. Кўҳна Шарқ дарғалари. – Т., 1999; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988.*

H.H., E.O.

AVHADIY MAROG‘IY (taxallusi; to‘liq ismi: Rukniddin yoki Avhadiddin ibn Husayn Marog‘iy Isfahoniy (1274−1338, Marog‘a) − fors-tojik mutasavvif shoiri.

Diniy-tasavvufiy ruhdagi she’rlari b-n shuhrat qozongan A.M. o‘z davri adabiy va falsafiy ilmlarini chuqur o‘zlashtirib, shofe’iylik mazhabiga mayl ko‘rsatgan. Eron elxonlari saroyiga yo‘l topib, ularga bag‘ishlab, qator qasidalar yozadi. 1308-y.i safarga chiqib, Sultoniya, Hamadon, Isfahon, Karbalo, Damashq, Kufa, Bag‘dod va boshqa shaharlarda bo‘ladi va 1311-y. Marog‘aga qaytadi. 1314-y. yana Isfahonga borib, u yerda 20 yil yashaydi va ko‘plab asarlar bitadi. 1333-y.dan umrining oxirigacha Marog‘ada yashaydi.

A.M.dan she’rlar devoni, “Dahnoma” (“O‘n noma”), “Mantiq ul-ushshoq” (“Oshiqlar mantig‘i”) va “Jomi Jam” (“Jamshid jomi”) masnaviylari yetib kelgan. Devoni qasida, g‘azal, qit’a, ruboiy tarkibband, tarje’band va murabba’ kabi janrlardagi she’rlarni o‘z ichiga oladi. Masnaviylari irfoniy mazmunda bo‘lib, “Jomi Jam” Sanoiyning “Hadiqat ul-haqiqat” asariga ergashib yozilgan. Tasavvufda Avhadiddin Kirmoniy izdoshlaridan hisoblanadi.

Devoni va “Jomi Jam” masnaviysiga Abdurahmon Jomiy va N.lar ham yuksak baho berishgan. Chunonchi, “N.M.”da o‘qiymiz: “... anga she’r devoni bor, g‘oyat latofatda bir tarje’oti bor mutalim haqoyiq-u maorifqa va “Jomi Jam” otlig‘ masnaviysi bor. Shayx Sanoiyning “Hadiqa”si uslub va vazni bila. Va anda ko‘p latoyif darj qilibdur... Va Shayx Sanoiyning “Roiya” qasidasig‘a yaxshi javob aytibdur va abyotining adadi yuz oltmish bo‘lg‘usidur”.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Авҳадий Мароғий. Рубоийлар // Донишмандлар туҳфаси. – Т., 2009; Абдураҳмон Жомий. Нафаҳот ул-унс // Осор. Дар 8 жилдлик, 8-жилд. – Душанбе, 1990. Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва табъироти ирфоний. – Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.); Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005.*

E.O.

ADAB – yaxshi tarbiya, maqbul amal va go‘zal xulq. Nafsni tarbiyalash, botiniy poklanish intizomi. Tasavvuf arboblarining tasniflariga binoan, adab to‘rt qismdan iborat: 1. Shariat odobi. Bu payg‘ambar shariati va sunnatiga amal qilmoq. 2. Tariqat odobi. Bu biror bir tariqatga kirib, uning odob va arkonini o‘zlashtirish, shu bo‘yicha harakat qilish. 3. Ma’rifat odobi – nafsi ammorani mag‘lub aylab, ilmi hol sirlarini o‘zlashtirish. 4. Haqiqat odobi. Bu Allohdan boshqasidan yuz burib, Haq axloqi b-n axloqlanish, fano nizomida yuksalish.

N. ijodiyotida A.ning bir-biridan ajralmas tarmog‘i haqida ham fikr-mulohazalar bayon etilgan. Insondan yaxshi-yomon, maqbul-nomaqbul xususiyatlarni qo‘llash yoki inkor etishda ham shoir, eng avvalo, adabga tayanadi.

Oltin-kumush etma kasb davlat kunidin-
Kim tortar adab ulusni mehnat tunidin,
Gar yo‘qtur adab, ne sud oltun unidin,
Elning adabi xushroq erur oltunidin.

N. turli janrdagi asarlarida, xususan, “M.Q.”, “N.J.” va bir qancha qit’alarida u yoki bu tarzda shu adablardan bahs yuritgan:

Zevar kishiga ne toj-u ne afsar bil,
Ul zevar adab birla hayo darxar bil,
Har kimki adabsizdur, ishin abtar bil,
Alqissa eranlarga adab zevar bil.

“M.Q.”da “Tavozu’ va adab zikrida” nomli maxsus bob keltirilib, A.ning inson hayotidagi o‘rni yoritiladi: “Adab kichik yoshlig‘larni ulug‘lar duosig‘a sazovor etar va ul duo barakati bila umrdin barxurdor. Kichiklar mehrin ulug‘lar ko‘nglig‘a solur va ul muhabbat ko‘ngulda muabbad qolur… Muhabbatg‘a zeb-u piroya adabdin yetar va muvaddatg‘a ravnaq va baho tarkidin ketar. Adab va tavozu’ ko‘zgusig‘a jilo berur, ikki jonibdin yorug‘luq yetkurur”.

“N.M.”da ham A. valiylar tilidan sharhlanish barobarida ularning ibratli hayotlari ham A.ning mazmun-mohiyatini ochib bergan. Jumladan, Abu Abdulloh Nabojiy (r.t.) debdurki: “Adab himmatlilarning ziynatidur”. Va ham ul debdurki: “Har bir narsaning vazifasi bor, dinning vazifasi adabdur”. N. asarlarida ham A. bosh mavzulardan sanaladi:

Aysh, Navoiy, necha dilkash durur,
Lek adab birla hayo xush durur.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Назм ул-жавоҳир. ТАТ. 10*

жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва табъироти ирфоний. – Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.); Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005; Ҳаққул И. Занжирбанд шер қошида. – Т.,2021.

I.H.

ADAM – yo‘qlik, hechlik, fano. Tasavvufda A. ikkiga ajratilgan: birinchisi – mutlaq yo‘qlik, ikkinchisi – muqayyad yo‘qlik. Tasavvuf ahli u-n mutlaq vujud, mutlaq borliq Alloh taolodir. Mutlaq va haqiqiy Vujud Allohga nisbatan olamdagi ashyo va moddalar bir yo‘qlikdurki, ular asli yo‘qlikdan yaralmish. Ibn Arabiyga ko‘ra, “Koinotdagi har bir narsa vahiy va xayoldan iborat erur”. Zero, ularning haqiqiy va mustaqil boshli bir borliqlari yo‘qdir. N. ijodida ham shu kabi ifodalar san’atkorona ifodalangan:

Chun adam sahrosidin keldim vujud ayvonig‘a,
Buzg‘ay erdi marg selobi ul ayvonimni kosh.

A. yo‘qlik olami bo‘lganligi sababli qorong‘ulik, zulmat olami sifatida tasavvur qilingan. Mutlaq olam zulmat, mumkin – muqayyad olam esa uning soyasi o‘laroq qabul qilingan. N. ham asarlarida joy, makon ma’nolarida “A. mulki”, “A. sahrosi”, “A. vodiysi”, “A. dashti”, shuningdek, “A. yo‘li”, “A. tariqi” birikmalari b-n birga uning yo‘qlik olamiga ishora qiluvchi “A. shomi”, “A. shabistoni”, “A. tuni”, “A. faromushxonasi” kabi birikmalarni ham qo‘llaydi:

Istaram yuz manzil o‘tgaymen adam sahrosidin,
To zamone ting‘amen olam eli g‘avg‘osidin.

Yoki:

Navoiyni adam vodiysig‘a soldi fano seli,
Iturganlar ani, ul selning, xoshokin axtoring.

“H.A.” dostoni ma’lum ma’noda insonning yaratilishi va ruhning olamlararo sayriga bag‘ishlangan. Shu bois A. haqida ham shoir ko‘p o‘rinlarda to‘xtaladi. Jumladan, “Avvalg‘i munojot”da “Haqning avvaliyatidakim, xirad anga soniy bilmas, balki avval va oxir eli sano desalar anga loyiqi soniy topilmas va mumkinot gulshanidag‘i gullarning adam shabistonidin vujud gulistonig‘a kelmagining sifati va koinot bozoridag‘i durlarning xafo sahobidin zuhur daryosiga tushganining ma’rifati” haqida so‘z boradi. Ya’ni N. mutafakkir va mutasavvif bir ijodkor sifatida Xoliq va maxluq, Alloh va inson mavzusini atroflicha badiiy izohlaydi. Munojotlarda A. dunyosi va Alloh taoloning yaratuvchiligidan bahs etiladi. Ikkinchi maqolatda A. tasvir va ta’rifi shunday beriladi:

Ey bori mavjudg‘a sendin vujud,
Balki vujud ahlig‘a fayyozi jud.

Katmi adamdin neki mavjud o‘lub,
Sojid o‘lub, sen anga masjud o‘lub,

Kimki boshi sajdada – masjudisen,
Kimki yuzi qiblada – ma’budisen.

Uchinchi munojotda ham A. safaridan bahs etiladi. N. asarning ko‘ngil hayratlari b-n bog‘liq boblarida ham ko‘ngilning A. mulkidan safari taassurotlarini berib, bu uzoq va hayratlanarli yo‘lchilik tasvirlanadi. “Avvalg‘i hayrat” shunday boshlanadi: “Ko‘ngulning adam tunidin qutulub, vujud subhig‘a hamnafas bo‘lub, malak olami bahoristonining rango-rang azhori va gunogun ashjorin tamosha qilg‘oni va alarni “Sabbaha ismi rabbikal-a’lo” amri bila qayyumi haqiqiy tasbihig‘a mashg‘ul erkonin bilib dimog‘i bog‘ida hayrat gullari ochilg‘oni va ul gullar atri dimog‘idin hush olib behush yiqilg‘oni.

Ko‘z ochibon xoja adam shomidin,
Jon topibon tong eli payg‘omidin.

Dostonlaridan farqli o‘laroq, N. lirik merosida A. so‘zining ma’no qirralari kengroq. Tasavvufda inson a’zolari ma’lum bir irfoniy ma’no anglatadi.

Yor, mahbubning og‘zi xotirlanganda, aksariyat A. b-n bog‘lanadigan baytlar ko‘plab uchraydi:

Adamdur ul og‘izkim, xurdabini aql topmaydur
Vujudin garchi ul qatlim ishida guftugo‘ qilmish.

“M.Q.” asarida A. mamlakatiga qilingan mashaqqatli safarda muruvvat, vafo kabi oliy tuyg‘ular zarurligi aytiladi: “Ma’dumluqda muruvvat karamning urug‘ – qayoshidur, balki tav’amon qarindoshidur. Ikkalasi chun el bevafolig‘idin ogah bo‘lubtur, bulardin qochib adam mulki safariga hamroh bo‘lubtur”.

A. o‘lim, mavjud emaslik ma’nolarida ham keladi: “O‘tgan ro‘zgor adamdur. Kelmagandin so‘z aytqon ahli nadamdur va hol mug‘tanamdur. Bir turk bu ma’nida debdurkim: “Dam bu damdur”.

A., asosan, asl vatan ma’nosida qo‘llanadi. Shu bois N. ham shunday deydi:

Qochib adamg‘a boray-aql-u fahm-u donishdin,
Vatan borinda bu yot el aro ne bor manga?!

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011. Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва табъироти ирфоний. – Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.); Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005; Комилов Н. Тасаввуф. – Т., 2009; Ҳаққул И. Занжирбанд шер қошида. – Т.,2021.*

I.H., Z.R.

ADVOR (ar.) – davrning ko‘pligi: doiralar, aylanalar, turkumlar) – musiqa ilmi. Kuy va qo‘shiqlarning zarb va usulini maxsus belgilar – o‘lchov doiralari b-n belgilangan. O‘tmish musiqashunoslari uni nazariy va amaliy qismga ajratadilar. Musiqaning maxsus belgilar – harflar, doiralar, raqamlar b-n ifodalanadigan amaliy qismini A. deb yuritadilar.

A. ilk bor Kindiy (801–879)ning musiqiy risolalarida maxsus ilmiy-musiqiy atama sifatida “ritmik doiralar” ma’nosida, Forobiy asarlarida musiqa asarlarining muvaqqat-fazoviy (ritmik, shakliy) nisbatlarni, “Ixvon us-safo” (X asr) risolalarida esa universal-estetik tushunchalarni ham ifodalovchi atama sifatida qo‘llaniladi. XII–XIII asrlarda A.ning ma’no doirasi kengayib, unda turkum (O‘n ikki maqom, navbat, amal va b.), alohida ijro etiladigan musiqa asarlarining tuzuklari (parda va tovush-qatorlar tizimi) va ritmik doiralari (usul va zarblar) aks ettirilgan. Ushbu universal musiqiy ma’nolardagi A. atamasi XIII–XV asrlarda, ayniqsa, al-Urmaviyning “Kitob ul-advor” (“Aylanalar kitobi”) asaridan keyin musiqa istilohida “maqom” atamasiga teng ma’noda muhim o‘rin egallagan. O‘rta asrlar musulmon Sharqi musiqa ilmida ritmik vaqt birligi hamda ushbu birliklardan tashkil etilgan ritmik tuzilma (usul)lar ham davr yoki A. deb atalib, risolalarda aylana shaklida ifoda etilgan.

N. “M.N.” tazkirasida Abulvafo Xorazmiy haqida “Advor va musiqiy ilmida dag‘i mahorati bor erdikim, risolasidin ma’lum bo‘lur”, – deb yozadi. Yoki “F.Sh.” dostonida har biri bir fanda mohir bo‘lgan Mehinbonu haramidagi o‘n diloromning biri “advor davri ichra raqqos” edi.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1-китоб. – Т., 2000; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988.*

A.N., E.O.

ADO (laqabi, ismi Sultonxonto‘ra Ahroriy) (t.y.n. − Samarqand − 1834/35) − zullisonayn shoir, davlat arbobi. Asli samarqandlik bo‘lib, hayotining asosiy qismi ona shahrida o‘tgan. Xoja Ahror Vali avlodidan. Qo‘qonda Amir Umarxon saroyida xizmat qilib, malik ush-shuaro darajasiga ko‘tarilgan (1806–1822). Umarxon vafotidan keyin Buxoroga ketib, amir Nasrullo saroyida xizmat qilgan. Keyin Samarqandga shayx ul-islom qilib yuborilgan.

Saroyda xizmat qilgani tufayli sho‘ro davrida hayoti va ijodiga salbiy baho berilib, tadqiqot doirasidan chetda qolgan. Xususan:

Gar Navoiydan Ado so‘zini o‘tkarsa ne tong,
Shoh Umar afzalmu yo sulton Husayn Boyqaro? –

degan bayti u-n ko‘p tanqidga uchragan. Holbuki, bu Sharq she’riyatida mavjud an’ana yo‘lida bitilgan faxriya bayt, xolos.

O‘zbek tilida ham qator go‘zal she’rlar yozganiga qaramay, asosan, tojik tilida ijod qilgan.

E.Shodiyev Adoning 500 dan ortiq ruboiy-mustahzodni o‘z ichiga olgan qo‘lyozmasini topib tahlil qilgan. Unda shoir forsiy va turkiy adabiyotning Umar Xayyom, Pahlavon Mahmud, Abdurahmon Jomiy, N. kabi zabardast ruboiynavislariga mustazod bitgani aytilgan. Chunonchi:

Gul vaqti muyassar bo‘ldi gulfom
qadah har go‘shayi bog‘,
Andin so‘ng tutsa, har gulandom
qadah, xush ayla dimog‘...

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Айний С. Намунаи адабиёти тожик. – М., 1926; Шодиев Э. Адонинг мустазод рубоийлари // ЎТА, 1972, №2; Қайюмов Д. Қ. Тазкираи Қайюмий. 1-китоб. – Т., 1998; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 2. – Душанбе, 1988; Қайюмов А. Кўқон адабий муҳити. – Т., 1961.*
E.O.

ADOLAT (ar. adl, ya’ni A., to‘g‘rilik, insof degan ma’nolarni anglatadi) – shaxs va ijtimoiy guruhlar imkoniyatlari va talablari, huquqlari va farovonligining me’yorini, jamiyatning shaxs oldiga qo‘yadigan talablari, turli sinflar va ijtimoiy guruhlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-madaniy voqealarga munosabatini xarakterlovchi ijtimoiy ong tushunchasi. A. haqidagi ilk tasavvurlar mehnat taqsimoti va xususiy mulkchilikning vujudga kelishi b-n bog‘liq. Biroq qadimgi davr mutafakkirlari uni universal qonun sifatida talqin etmasdilar. Zardusht A.ni “arta” tushunchasi yordamida ifodalar ekan, uni olamdagi 2 qutbdan biri, deb hisoblaydi. Yunon faylasuflari esa, hatto qullikning mavjudligini ham A.dan deb ta’kidlardilar. A. muammosini tizimli tarzda o‘rganib chiqishga qo‘l urgan dastlabki yunon faylasufi Platon bo‘ldi. Uning ijtimoiy, siyosiy konsepsiyasida A. “hukmronlik” va “imtiyoz” tushunchalariga o‘xshash kategoriya sifatida ifodalanadi. Faylasuflarning fikriga ko‘ra, har bir tabaqa ichida tenglik bo‘lmog‘i, tabaqalar orasida tenglik hukm surmog‘i A.dandir. Ushbu g‘oyalarni rivojlantirgan Aristotel esa tenglashtirish va taqsimlash A. tushunchalarini qo‘llay boshladi.

N. ham A.ni qiziqarli talqin etgan. 1. Jamiyatda A.ning qaror topishi hukmdorning fazilatlariga, davlatning ichki va tashqi funksiyalariga bog‘liq deb ko‘rsatsa; 2. A.ni jamiyatdagi barcha ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi tushuncha sifatida ta’riflaydi. N. A.ni o‘rnatish u-n ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy sohaga doir tamoyillarni ham aniqlab beradi. A. jamiyatda quyidagi vazifani bajaradi: 1. Jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni maqsadga muvofiq tashkil etadi; 2. Turli ijtimoiy guruhlar manfaatlarining himoya qilinishini ta’minlaydi, ular orasidagi muvozantni saqlab turadi; 3. Jamiyatdagi mulkchilik munosabatlarini, ishlab chiqarish faolligini oshiradi; 4. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoyalovchi vosita sifatida xizmat qiladi; 5. Voqelikda keng ildiz otgan, lekin ijtimoiy taraqqiyotga to‘sqinlik qilayotgan munosabatlarni bartaraf etadi; 6. Kelajakka ishonch tuyg‘ularini uyg‘otadi.

A.ning eng asosiy mezoni N. talqinida ijtimoiy taraqqiyotdir. A. Allohning Adl sifati b-n bog‘liq. Ba’zi o‘rinlarda N. A. haqidagi fikrlarini Adl sifati b-n bog‘laydi. “Alloh adl qilishga buyurgan” degan mezonni o‘z asarlarida keng targ‘ib qiladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик,*

9-жилд. – Т., 2011. Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988; Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. Душанбе, 1987; Эргашев Қ. Навоийнинг насрий услуби масалалари. – Т., 2022.

B.R.

AD'IYA – duo qilish, Yaratganga iltijo qilib so‘rash, tilak tilash. Insholarning ayrim turlarining tarkibiy qismi. A., eng avvalo, rasmiy yozishmalar u-n xos bo‘lgan. Bunday xatlar odatda uch qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismi A. deb atalgan va adresatning laqab va unvonlari, oti, uni ulug‘lovchi sifatlarni o‘z ichiga olgan. Ikkinchi qismda xat yo‘llovchining maqsadi, muddaosi bayon etilgan va bu asosiy qism hisoblangan. Uchinchi qism, ya'ni A.da adresat sha'niga duo qilinib, maktub tugatilgan. A. o‘sha davr yozishlar odobi tomonidan ham taqozo etilgan va uning o‘z yo‘sini, qoidalari bo‘lgan.

Rasmiy yozishmalardan tashqari A. shaxsiy yozishmalarning murofia turida ham uchraydi. Bunga N.ning "M."idagi bir qator murofia namunalari misolida ishonch hosil qilish mumkin. Ulardan birining A. qismi quyidagicha: "To falaki davvor to‘qquz xoni anjum diramlari bila muzayyandur, ul diramliq xonlar mulk fath qilg‘on jayshingda sochiq bo‘lsun va kavokibi sayyor durusti sekka xututidin muarrodur ul soda siymlar ochqan kishvar zarbxonasida sekkan adling‘a so‘qulsun. Ruboiya:

To Tengri erur boqiy-u olam foniy,
Tengri tutsun senga musallam oni.
To bo‘lg‘ay ulusqa shahlig‘ imkoni,
Sen shohqa-u shah senga arzoniy.

N. murofialarida A. xat oxirida, uning yakunlovchi qismi sifatida kelishi b-n bir qatorda xat boshida ham kelishi, ya'ni ayrim maktublarning duo b-n boshlanishi ham kuzatiladi. Ba'zan esa maktub duo b-n boshlanib, duo b-n tugaydi. N. maktublarida A. nasrda ham, she'riy shaklda ham bitiladi. Shuningdek, bu qismda nasr va nazmning aralash kelishini, ko‘p hollarda nasriy satrlarda boshlangan duo she'riy misralarda davom ettirilgani va tugatilganini ko‘rish mumkin. Bunda she'rning bayt, ruboiy, ayrim hollarda, masnaviy shakllaridan foydalaniladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Муншаот. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Эргашев. Қ. Ўзбек насрида иншо. – Т., 2011; Эргашев Қ. Навоийнинг насрий услуби масалалари. – Т., 2022; Муҳаммад ибн Ҳиндушоҳ Нахчивоний. Дастур ал-катиб фи таъйин ал-маратиб. – М., 1964.*

Q.E.

AYOZ (asl ismi Abu Najm Ayoz ibn Uymoq) – Sulton Mahmud G‘aznaviyning sadoqatli quli va sohibjamol nadimi. Zehn-u zakovat va husn-u malohatda mashhur bo‘lgan A. shohning sevimlisi edi. Sulton saroyida tutgan mavqeyi barcha a'yonlardan baland bo‘lgan.

Sulton Mahmud va quli A. o‘rtasidagi do‘stlik va samimiy muhabbatni adabiyotga ilk marta Sanoiy va Nizomiy olib kirgan. Fors shoiri Zuloliy Xonsoriy "Mahmud va Ayoz" nomli yirik irfoniy doston yozgan. Mashhur hind shoiri Muhammad Iqbolning quyidagi baytida Hindistonni zabt etganida sanamlarni sindirgan Mahmudning A.ga asir bo‘lgani xususida so‘z boradi:

Barhamane ba G‘aznaviy guft:
"Karomatam nigar!
Tu, ki sanam shikastayi,
banda shudi Ayozro".

A. – ishq va oshiqlik yo‘lida shoh-u gado tengligining ramzi sifatida talqin qilinadi.

N. ham bir baytida: "Ishq olamida ajoyib hodisalar ko‘p bo‘lib, Sulton G‘azanaviyga quli Ayozning hukm etishi shular jumlasidandir", – kinoya qiladi:

Ko‘p o‘lmish bul'ajabliq ishq aro
ul jumladin bir bu –
Ki, shohi G‘aznaviy mahkum bo‘lg‘ay,
hukm Ayoz etkay.

Boshqa bir baytida esa ishq kamolga yetsa, ma’shuq oshiqqa aylanadi – Ayozning Mahmudga qulluq qilishi buning isbotidir”, – deb lutf etadi:

Ishq agar komildurur, oshiq qilur ma’shuqni,
Yo‘qsa nevchun ayladi Mahmudqa qulluq Ayoz.

Yana bir baytida o‘zing Mahmud maqomiga yetmay turib, yoringning A.day bo‘lishini talab qilma, deb yozadi:

Ishq agar komildurur ma’shuqni mahkum etar,
Bo‘lmayin Mahmud, bo‘lmoq istama yoring Ayoz.

Sulton Mahmud vafotidan keyin bir muddat Sulton Muhammad, so‘ng Sulton Mas’ud G‘aznaviy saroyida xizmat qilgan. “Tarixi Bayhaqiy”da keltirilishicha, Ayoz umri oxirida Mukron viloyati hokimi etib tayinlangan.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. Душанбе, 1987; Насриддин А. Фарҳанги мушкилоти адабиёт. – Хўжанд, 2016.*

E.O.

AYOZIY (XV asr) – N.ga zamondosh shoirlardan. “M.N.” tazkirasida keltirilishicha, “g‘arib shakllik kishi erdi. Atvori va so‘zi xoh nazm, xoh nasrda g‘arib erdi”. Puli Molondagi bir anjumanda qasida o‘qiganda, N. so‘zining uslubiga qarab, har baytining qofiyasini oldindan aytib beraverganini hikoya qiladi. Bundan A. nihoyatda hayron bo‘ladi. Uch yildan so‘ng Bog‘i Safidda bo‘lib o‘tgan yana bir yig‘inda bu hol takrorlanadi. Avvalgi voqeaning ham guvohi bo‘lganlar: “Sira shunaqangi kishini ko‘rganmiding?” – deb so‘raydilar. Ko‘zi xira bo‘lgani u-n u N.ni tanimaydi va: “Uch yil burun Puli Molonda ham bir yigit shunday hozirjavoblik qilgan edi”, – deydi. Majlis ahli bu holdan kuladilar. N. “M.”dagi maqolasida uning shoirlik iqtidori to‘g‘risida so‘zlab, A.ning forsiyda bitilgan avtobiografik xarakterdagi bir baytini keltiradi:

Chodirshabi xud rangi magas rida, Ayoziy,
Ne joma-vu ne kurta-vu ne mo‘za namozi.

Tarj.: Ey Ayoziy, pashshaxonangning rangi pashsha o‘tirgan rangda, etiging ham, to‘ning ham, ko‘ylaging ham shu rangda biror narsang pokiza emas.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Навоий асарлари луғати. Тузувчилар Порсо Шамсиев, Солиҳ Муталлибов. – Т., 1972.*

M.A.

AJAM (ar. – arabdan boshqa) – arablardan boshqa Sharq mamlakatlarining umumiy nomi. M-n, Eron va Turon mamlakatlari ham mulki Ajam deb yuritilgan. Bu yerlardan yetishib chiqqan olim-u adiblarini ajamiylar deganlar. Lekin ko‘proq Eron ko‘zda tutilgan. Uni, hatto A. va Ajamiston deb ham ataganlar. N. “T.M.A.” asarini “Ajam tarixida fors salotinini to‘rt tabaqa qilibdurlar”, – deb boshlaydi.

A. atamasi forsiy xalqlarga nisbatan ham qo‘llangan. Arab va A. majoziy ma’noda barcha xalqlar degan ma’noni bildirgan.

Yana Xisrav, ul turki hindiy laqab –
Ki, so‘z birla oldi Ajam to Arab.

Ajam shuarosi deganda esa ko‘proq forsiy shoirlar tushunilgan.

“M.A.” muqaddimasida N. A. so‘zini forsning ma’nodoshi sifatida qo‘llaydi: “...Ajam shuarosi va fors fusahosi har qaysi usludakim so‘z arusig‘a jilva namoyish berib erdilar, turk tili bila qalam surdum va har nechuk qoidadakim, ma’ni abkorig‘a ziynat va oroyish ko‘rguzub erdilar, chig‘atoy lafzi bila raqam urdum”.

Ajam tili deganda fors tili, ajamiy deganda forsiy ham tushuniladi. “To‘rtunchi doira ikki

bahrdur, mutaqorib va mutadorik va ajam tili bila asli masnaviyi mutaqorib bahridur”.

Ad.: Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Навоий асарлари луғати. Тузувчилар Порсо Шамсиев, Солиҳ Муталлибов. – Т., 1972.

S.R.

AJDAHO – ilon; afsonaviy katta ilon. Irfoniy adabiyotda A. yomonlikka da’vat qiluvchi zolim, haris va tamagir nafs timsoli hamda g‘azab va shahvat kabi razil sifatlarning mazhari bo‘lib keladi. Moddiy olam va sarkash nafsga ham ishora qilinadi. Sharq mumtoz she’riyatida A. timsol o‘laroq keng qo‘llanadi. “F.Sh.” dostonida ham Farhodning oyinayi jahonnamoni qo‘lga kiritish yo‘lida yengib o‘tishi kerak bo‘lgan to‘siqlardan biri g‘ordagi dahshatli A. bo‘lib, u aynan nafs timsoli bo‘lib keladi. Dostonning 22-bobida uning A. b-n kurashi batafsil tasvirlangan. Suhaylo Farhodga A.ni yengish u-n samandar yog‘ini tuhfa etadi. Samandar olov ichida yashaydigan jonivor bo‘lganidan bu yog‘ni otashgohlarda yurib yig‘ganman, agar A. b-n kurashda uni badaningga surtib olsang, A. o‘ti senga ta’sir qilmaydi deydi. Farhod shu yo‘l b-n A.ni yengadi:

Agarchi ajdaho bor erdi darron,
Vale ul o‘q yiloni o‘tti parron.

Teshib behad tani osudasini,
Kabob etkan kibi qo‘y ro‘dasini..

Samandar – ishq ramzi. N. bu orqali ishq otashi nafs o‘tini so‘ndiradi, degan fikrni ilgari suradi.

Ad.: Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва табъироти ирфоний. – Теҳрон, 1370 (ҳ.-ш.); Комилов Н. Тасаввуф. – Т., 1996.

E.O.

AZAL (ar. – boshlanishi, ibtidosi bo‘lmagan, ibtidosi noma’lum. Abadning ziddi, muqobili) – ibtidosiz zamon, o‘tmishdagi chegarasizlik, beintiholik va h.k. A. va Abad so‘zlari ayri ma’nolarga ega bo‘lsa-da, N. asarlarida yonma-yon keladi. A. qadimdagi intihosizlik bo‘lsa, Abad kelajakdagi intihosizlik, A. ibtidoning yo‘qligi bo‘lsa, abad intihoning yo‘qligidir.

N. asarlarida bu so‘z, asosan, Allohning azaliy zot ekani, avvalining ibtidosi yo‘qligi, eng qadimdan Allohning bor bo‘lganlik sifatini bildiradi. Allohning A. sifati b-n Avval sifati o‘rtasida ma’nan yaqinlik va bog‘liqlik ham ko‘zga tashlanadi. M-n:

Ey sanga mabda’da abaddek azal,
Zoti qadiming abadiy lom’yazal...

A. so‘zi boshqa so‘zlar b-n birikkan paytda zamon va vaqtdan tashqari boshqa ma’nolarni ham ifodalaydi: Az azal-azaldan, qadimdan; Azal xatti – eng qadim, azaliy yozmish; Azal subhi – Azal tongi; Azaldin to abad – eng avvaldan eng oxirigacha. A. tog‘i; Naqqoshi A.– Xudo; A. xatti – Taqdir bitigi; A. soqiysi – Xudo; Qassomi A.– Qismat bituvchi Xudo; Kilki qazo – Taqdir qalami; Qismi A– Azaldan belgilangan taqdir va h.k.

So‘ngg‘i kundin xalq tarson,
men burun kundin vahim,
Elga g‘am shomi abad keldi,
manga subhi azal.
Go‘yo lab-u xattingni tarh etkanda
Naqqoshi azal,
Shingarf-u zangor o‘rnig‘a
la’lu zumurrad qildi hal.

A. so‘zi orqali N. Allohning qadimiylik va azaldan bor bo‘lganlik sifatini asarlarida yoritgan. Shuning barobarida A. so‘zi boshqa so‘zlar b-n birikib, inson holati va hayoti b-n bog‘liq voqealarni, taqdir, qismat kabi g‘ayb olami b-n aloqador tushunchalarni ifodalagan.

Ad.: *Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик, 3-жилд. – Т., 2011; Навоий асарлари луғати. Тузувчилар Порсо Шамсиев, Солиҳ Муталлибов. – Т., 1972; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва табъироти ирфоний. – Теҳрон, 1370 (ҳ.-ш.); Комилов Н. Тасаввуф. – Т., 1996.*

S.R.

AZAL SUBHI – azal tongi; yaratilish kuni. Haqning azaliy nurlari ham ko‘zda tutiladi. M-n, “S.I.” dostonidagi quyidagi baytda Fayyozi jud, ya’ni o‘z saxovati b-n fayz bag‘ishlovchi Xudo shu kunda barcha mavjudotni vujudga keltirgani haqida so‘z boradi:

Azal subhikim, chekti Fayyozi jud
Bori ofarinishqa naqshi vujud.

Bu iboraga shoir g‘azallarida ham ko‘p duch kelamiz. M-n, quyidagi baytida qismati azal tongida alast jomi bo‘lgani u-n ham N. abad shomigacha mast bo‘lsa, buning sira hayron qoladigan joyi yo‘q deb lutf etadi:

Tong emas bo‘lsa Navoiy mast to shomi abad –
Kim, azal subhida bo‘lmish qismati jomi alast.

Alast – azal, yaratilish kuni, Alloh taolo olamni yaratishdan burun insonlarning ruhidan va’da olgan, Xudo odamlarning taqdirini belgilagan kun. Shunga muvofiq, alast jomi – yaratilish shavqidan masrurlik, o‘shanda Haq jamolini ko‘rib mast bo‘lganlik, sarmastlik xumori, ya’ni azaliy mastlik. Azal bazmida suzilgan qadah. Azaliy e’tirof. Alast bazmi deganda ham muhabbat va suhbat majlisi, Alloh taolo olamni yaratmasdan burun insonlarning ruhidan va’da olgan kunga ham ishora qilinadi. (Q.: Alast bazmi).

Mumtoz adabiyotda ko‘p duch keladiganimiz mast-u xumorlik motivlarining asosida xuddi shu narsa yotadi. Bu va’daga vafo qilganlarga, Alloh amridan chekinmay, dilini poklab, xulqini go‘zallashtirgan, o‘zini kamolotga yetkazgan xos bandalariga qiyomat kunida diydor va’dasi bor. Mazkur va’dani bajarmaganlar, ahd-u paymonni buzganlar dindan qaytgan, kofir bo‘ladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилд. – Т., 2011; Қуръони карим (А.Мансур тарж.). – Т., 1992.; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва таъбироти ирфоний. – Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.).*

E.O., M.A.

AZIZ KUCHEK IBN MUHAMMADADIL – Koshg‘ar xattotlik maktabining namoyandalaridan. Nasta’liq xatida yozgan. “X.”ning to‘rt dostondan iborat (“F.Sh.” tushib qolgan) nusxasini Sharqiy Turkistonning Kumul shahrida 1747-y. avgust (1160 hijriy yilning Barot oyi) da tugatgan. – T., O‘zR FAShI, qo‘lyozma 4307, 262 varaq. Mayda chiroyli nasta’liq xat, kitobat san’atining yetuk nusxasi.

Ad.: *Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. – Т., 1991.*

Muh.A.

AZIZE – N.ning “N.M.” asarida keltirilgan ikki hikoyatning qahramoni. Voqealarni pardalab bayon qilish, maqsad-muddaoni ochiq-oydin, oxirigacha bayon qilmaslik (rus adabiyotshunoslari bu usulni “недомоловки” deb ataydilar), ayrim hollarda shaxslar ismlarining o‘rniga boshqa so‘zlarni qo‘llash N. nasriy uslubiga xos xususiyatlardan biridir. Ba’zi maktublarida N. zikr etilayotgan kishi ismi o‘rnida “Falone”, “Xoja Falon” so‘zlarini ishlatadi. Bunday o‘rinlarda gap kim haqida ketayotganligini yoki muallif qanday voqeaga ishora qilganini aniqlash qimmatli ma’lumotlar berishi, asarning mazmun va g‘oyasini, muallif maqsadini to‘laroq anglab yetishga xizmat qilishi mumkin. Ushbu usuldan N. “N.M.” asari tarkibidagi ikki hikoyatda foydalangan. Har ikki hikoyatda ham muallif qahramon ismini tilga olmaydi, uni A. deb ataydi.

N. asarlarida diniy-tasavvufiy tushunchalarni anglatuvchi so‘zlar, ramzlar keng qo‘llanadi.

M-n, birgina tasavvuf ahlini, so‘fiylarni anglatish u-n muallif “Haq oshiqlari”, “Tengri do‘stlari”, “talab ahli”, “jamoli mushtoqlari” kabi bir qator ramzlardan foydalanadi. Biz tahlil qilayotgan hikoyachada qahramon nomi o‘rnida qo‘llangan “azize” so‘zi ham ana shunday ramzlardan biridir. Demak, N. A. deganda darveshlardan, so‘fiylardan birini nazarda tutgan. Uning kimligini aniqlashda bizga hikoyachadagi mana bu jumlalar yordam beradi: “... va hazrati mavlono Muhammad Tobadgoniyning kibor as’hobidin erdi va faqir alar xizmatida ko‘p irodatim bor erdi”. Bu so‘zlardan biz A. haqidagi bir qator ma’lumotlarni bilib olamiz. Birinchidan, o‘sha aziz N. zamondosh bo‘lgan, ikkinchidan, muallifning unga irodati bo‘lgan, uchinchidan, u kishi mavlono Muhammad Tobadgoniy as’hoblaridan sanalgan. N. “N.M.”da mavlono Muhammad Tobadgoniy as’hoblaridan bir necha kishini zikr etadi. Bular Darvesh Muhammad Gozurgohiy, mavlono Muhammad Xurosoniy, Darvesh Muhammad Bihra, Mavloni Vajihuddin va darvesh Sayyid Hasanlardir. Darvesh Muhammad Gozurgohiy, Darvesh Muhammad Bihra va Mavlono Vajihuddin zikrlarida muallif ular b-n uchrashgani yoki hamsuhbat bo‘lgani haqida hech narsa demaydi. Mavlono Muhammad Xurosoniy haqida esa “Bu haqir bir-ikki qatla suhbatiga ul mutabbarak manzilda musharraf bo‘ldi”, deb yozadi. Demak, A.dan maqsad bular emas. Chunki N. u haqda “Bu haqir alar xizmatida ko‘p irodatim bor erdi” degan so‘zlarni aytadi. Bundan chiqadiki, gap “N.M.”da tilga olingan mavlono Muhammad Tobadgoniy as’hoblaridan bo‘lmish darvesh Sayyid Hasan, ya’ni ma’lum va mashhur Sayyid Hasan Ardasher xususida ketyapti. Agar biz “N.M.”da A. ta’rifida bitilgan so‘zlar b-n “H.S.H.A.” asarida Sayyid Hasan haqida bitilgan so‘zlarni qiyoslasak, ta’riflarda bir xil so‘z va iboralar qo‘llanganini ko‘ramiz va gap bir shaxs haqida borayotganiga ishonch hosil qilamiz.

Ikkinchi hikoyadagi A. ham xuddi o‘sha yuqoridagi hikoyachada ta’riflangan shaxs ekanligini muallifning hikoya boshidagi “ham mazkur bo‘lg‘on azizning bir o‘g‘li bor erdi”, jumlasidan anglashiladi. Keyin o‘sha bolaning bag‘oyat qobiliyatli, yaxshi xulqli bo‘lib, yolg‘iz o‘g‘il ekanligi aytiladi. To‘satdan bolaga kasallik tegib, u vafot etadi. Uni tanigan va bilgan kishilarining barchasi motam tutadilar. Lekin bolaning otasining holida ham, libosida ham o‘zgarish bo‘lmaydi. U motam tutgan kishilarga tasalli berib, ularni qazoga rozi bo‘lishga targ‘ib qiladi. Na’shni qabristonga olib boradilar. Mazkur aziz farzandini o‘z qo‘li b-n qabrga qo‘yib, tuproqqa topshiradi. Shunda ham uning ahvolida, yurish-turishida o‘zgarish sezilmaydi. Marosimda hozir bo‘lgan kishilarning barchasi uning irodasiga qoyil qoladilar.

“N.M.”da keltirilgan ushbu hikoyada sodir bo‘lgan voqea Sayyid Hasan hayotida yuz bergani va “H.S.H.A.” asarida keltirilgani ma’lum bo‘ladi. “Sayyid Muhammad alarning (Sayyid Hasanning – Q.E.) yolg‘iz farzandi erdi,” – deb yozadi N. So‘ngra uning benihoyat qobiliyatli bo‘lganligi va o‘n to‘rt yoshda vafot etganini aytib, motam marosimini hamda unda Sayyid Hasanning o‘zini qanday tutganligini va ta’ziyada hozir bo‘lganlarning bu holatga munosabatini tasvirlaydi: “Na’sh bilan borg‘on darveshlar va akobir-u ashrofni hayrat lol qilib, taajjub behol qildi”.

Shunday qilib, har ikki hikoyada nomi tilga olinmay A. deb zikr qilingan qahramon Sayyid Hasan Ardasherdir. Hikoyalarni keltirishdan muallifning maqsadi ahlullohga xos xususiyatlarni ko‘rsatish bo‘lib, A., ya’ni Sayyid Hasan Ardasher timsolida sabrni pesha qilgan, rizo maqomidagi solik qiyofasi tasvirlangan.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ҳолоти Саййид Ҳасан Ардашер. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Эргашев Қ. Навоийнинг насрий услуби масалалари. – Т., 2022; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва табъироти ирфоний. – Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.); Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988.*

Q.E.

AZIZLAR HAZIRASI (Aziz kishilar mozori) – N. ustozi, ota maqomidagi ulug‘ inson Sayyid Hasan Ardasher u-n Hirot shahrining shimoliy tomonida – tog‘ etagida barpo etgan qabriston. U ustoziga yaqin kishilarning ham har yerda yotgan xokini shu yerga ko‘chiradi. Shu sababli ba’zi ulug‘lar bu qabristonni “A.H.” deb ataydilar va u shu nom b-n mashhur bo‘lib ketadi. Bu haqda N. “H.S.H.A.” yodnomasida shunday yozadi:

“Va alarning favti zamonida bu faqir shahrda yo‘q erdim. Podshoh hukmi bila bir sori borib erdim. Kelgandin so‘ngra, chun sohibi azo faqir erdim, ta’ziyat qoidasin bajo kelturub, shahrning shimoli haddida tog‘ etagida alar uchun hazira yasadimkim, “Jo‘yi nav” suvi aning ichidin o‘tar, bag‘oyat biyik va xushhavo erdur.

Va xayli azizlarkim, alarg‘a tiriklikda musohib erdilar va qabrlari parokanda yerlarda voqe’ erdi, yig‘ishturub, alar javorida qo‘yuldi. Bu jihatdin ba’zi azizlar ul yerni “Azizlar hazirasi” debdurlar va bu ism mashhur ham bo‘lubdur”.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳолоти Саид Ҳасан Ардашер. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

E.O.

AZIMOV Inomjon Mamasodiqovich – tilshunos, f.f.d., prof. Olimning “Alisher Navoiyning nasriy asarlarida kesim markazli bir bosh bo‘lakli gaplarning shakliy va mazmuniy xususiyatlari” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida N.ning nasriy asarlaridagi kesim markazli bir bosh bo‘lakli sodda va qo‘shma gaplarning shakliy va mazmuniy xususiyatlariga aloqador bo‘lgan masalalar qiyosiy tahlil qilingan. Qo‘shma gaplar tarkibidagi gaplarning bog‘lanishida semantik munosabat yetakchi ekani, ulardagi subyektning ifodalanishiga ko‘ra ayni subyektli va turli subyektli kesim markazli bir bosh bo‘lakli qo‘shma gaplarning nazariy asoslari belgilangan, kesim markazli bir bosh bo‘lakli qo‘shma gaplarning sintagmatik xususiyatlari, qo‘shma gaplarda bog‘lovchilarning ishtiroki tahlil qilingan, kesim markazli bir bosh bo‘lakli qo‘shma gaplar tarkibidagi gaplarning semantik munosabatini aktuallashtiruvchi til vositalari oppozitsiyasi yoritilgan.

N. tiliga xos bo‘lgan har bir sintaktik hodisa hozirgi o‘zbek tiliga qiyoslangan, ular orasidagi o‘xshash va farqli tomonlar ochib berilgan. N. ning “T.M.A”, “M.Q.”, “M.L.”, “M.N.”, “H.S.H.A.”, “M.”, “Xam.M.”, “H.P.M.” asarlaridan olingan misollar tahlil qilingan.

E.U.

AZOZIL (ar. – Iblis) shaytonning ikkinchi bir nomi. Bu ism ibroniy va nasroniy manbalarda Azozal, Azoal, Hazozal shaklida tilga olingan. Olimlar uni Iblisning ismlaridan biri sifatida qayd etishgan.

A. Alloh la’natlagan yaratiq. N. “T.A.H.” asarida yozishicha, Tangri Odam (a.s.)ni yaratib, unga barcha narsalarning ismini o‘rgatdi va farishtalarni unga sajda qilishga amr etdi. Farishtalar unga sajda qildilar, faqat Iblis Odamning loydan yaratilgani, o‘zining esa olovdan yaratilganini iddao qilib, takabburlik qildi va sajda qilmadi. Bu borada “T.A.H.” da aytiladiki: “.. maloyikayi muqarrab aning ilmig‘a mu’tarif bo‘ldilar va Tangri taolo hukmi bila anga sajda qildilar. Iblisdin o‘zgakim, ul jindin erdi, “Fasajadal maloikat-u kulluhum ajmaun. Illo Iblisa abo. Vastakbara va kona min al-kofirin...” (Barcha-barcha farishtalar unga (ya’ni, Odamga) sajda qildilar. Magar iblis sajda qiluvchilar bilan birga bo‘lishdan bosh tortdi va kofirlardan bo‘ldi) (“Hijr” surasi, 30-31-oyatlar).

Va iblis ko‘p toat qilg‘ondin so‘ng maloika martabasig‘a yetib erdi. Chun Tangri taolo amridin bo‘yun to‘lg‘odi, shaqovat va la’nati jovid tavqi aning bo‘ynig‘a tushti...”

N. Qur’on oyatlarini keltirib, A.ning oliy dargohdan quvilgani va Tangridan qiyomatgacha muhlat so‘ragani, Tangri esa unga imkon berganini eslatib o‘tadi. Lekin A. qiyomatgacha insonlarni yo‘ldan ozdirishga va’da beradi. Tangri esa

o‘zining xos bandalarini yo‘ldan ozdirolmasligini, A. faqat o‘ziga ergashganlarni vasvasa qilib, yo‘ldan ozdirishini o‘z kalomida eslatib o‘tadi.

Qur’on oyatlari va hadislarda A.dan panoh tilash, uning yomonligidan, vasvasalaridan saqlanish yo‘llari ko‘rsatilgan. N. asarlarida ham A. ning la’natlangani va Tangrining dushmani ekani zikr qilinadi. Ba’zi insonlarning fe’l-u xo‘yi yomon bo‘lgani u-n shaytonga tenglashtiriladi. U “M.Q.”asarida takabburlikni “shayton ishi” ekani va kibr qilish “Tengri do‘stlari olida mat’un va Tengri qoshida mardud va mal’un”, deb ogohlantiradi. Umuman, A. (shayton) yomonlik, gunoh, qotillik, fahsh, badbaxtlik ramziga aylanib ketgan. N. g‘azallarida xudbinlik va o‘zlik da’vosidan kechish, ibodatlardan, yaxshi fazilatlardan mag‘rurlanmaslik g‘oyasi doimo eslatib turiladi:

Qo‘yg‘il o‘zlukni gar odam esang, inak shayton
Kibr ila nayladi ko‘r, oncha ibodot aylab.

N. ba’zi baytlarida A.ning (shaytonning) nomini tilga olmasa ham, talqin va tavsiflarida unga ishora qiladi. Ulug‘ mutafakkir shoir bir baytida tuproqqa o‘xshab, xoksorlik qilmasdan takabburlik, xudbinlik xayolida yurgan kishini Alloh dargohidan rad etilgan, quvilgan shaytonga o‘xshatadi:

Ey Navoiy, o‘zni maqbul istasang, tufroq bo‘l,
Kim erur mardud, ulkim boshida pindori bor.

N. “S.I.” dostonida hazrat Payg‘ambarimizni ta’riflar ekan, u muborak zotga tegishli bo‘lgan har qanday narsaning xayrli va barakotli bo‘lishini, hatto tuzog‘iga tushgan qush A.dek sarkash, mag‘rur bo‘lsa ham, oqibati yaxshi, baxtli bo‘lishini ta’kidlaydi:

Qushekim sanga bastayi dom emish
Azozildek, farruxanjom emish.

Ammo hayotning achchiq-chuchugini, yomon-yaxshisini ko‘rgan N. ba’zi insonlarning kirdikorlari shaytondan ham battar ekani, hatto shaytondan unga yomonlik emas, undan shaytonga zalolat yetishini ham eslatib qo‘yadi:

Yomonni demaki, izlol etar ekin shayton,
Degil: fasodda mundin etar zalolat anga.

N. A. (shayton) timsolida insonlarni ogohlantiradi, ularni A. hayotidan to‘g‘ri xulosa chiqarishga va ibrat olishga chaqiradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик, 3-жилд. – Т., 2011; Ислом. Энциклопедия. – Т:, 2017. Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. – Душанбе, 1987; Жилд 2. – Душанбе, 1988; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва табъироти ирфоний. – Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.); Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд. 1. – Душанбе, 1988.*

I.H.

AYZAN (ar. – ikkinchi marta, yana bir bora, takroran; yana, qayta, ham) – N. “Devoni Foniy”da buyuk forsiy salaflariga qilgan tatabbu’larida muayyan qofiya yoki radifga qaytib, ular vositasida yaratgan g‘azallariga shunday sarlavha qo‘yadi. M-n:

Bahoron gar ba gulshan tarhi
jom-u sog‘ar andozem,
Beh az in saqf bishkofem-u
tarhi nav darandozem.

Tarj.: Agar bahor faslida gulshanda jom-u may bazmini tuzsak, bu falak tomini buzib, uni yangi tarh asosida qayta bunyod etsak, yaxshi edi.

Bu g‘azal Hofiz Sheroziyning isyonkor ruhdagi quyidagi matla’li mashhur g‘azaliga tatabbu’dir:

Biyo, to gul barafshonem-u may
dar sog‘ar andozem,
Falakro saqf bishkofem-u tarhi
nav andozem.

Tarj.: Kel, to gul o‘ynab, qadahga may quyaylik. Falak tomini buzib, yangi tarh asosida uni qayta quraylik.

Ad.: Алишер Навоий. Девони Фоний. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т.,2011; Ҳофизи Шерозий. Мунтахаби девон. – Душанбе, 1957; Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. – Душанбе, 1987; Жилд 2. – Душанбе, 1988; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва табъироти ирфоний. – Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.).

E.O.

AYMAN VODIYSI – muborak vodiy, muqaddas vodiy. Bu vodiyda Muso (a.s.) Alloh taolo b-n so‘zlashgan. Muso (a.s.) tunda undan zavjasi b-n o‘tar ekan, juftini to‘lg‘oq tutib, o‘t qidirishga tushadilar. Shu mahal uzoqdan bir shu’la ko‘zga tashlanadi. Yaqin borganlarida, nur daraxtiga duch keladilar. Shu yerda Muso (a.s.)ga g‘aybdan nido keladi – uning ilk me’roji shu edi. Muso (a.s.)ni A.V. cho‘poni ham deydilar. Chunki u bu vodiyda 10 yil Shuayb (a.s.)ning qo‘ylarini boqqan. Shundan keyingina uning qiziga uylanish sharafiga muyassar bo‘lgan.

“Ayman” so‘zining lug‘aviy ma’nosi xususida har xil qarashlar mavjud. Ba’zilar uni o‘ng qo‘l sohibi ma’nosini bildiradi, deydilar. Chunki bu vodiy Muso (a.s.)ning o‘ng qo‘l tomonida bo‘lgan. Ba’zilar uning Tur tog‘ining o‘ng tomonida ekanini aytadilar. Shuning u-n ham u A.V. deb atalgan ekan. Ba’zi fikrlarga ko‘ra, Ayman daraxtning nomi bo‘lib, ilohiy tajalliy nuri shu daraxtga tushgan va uni kuydirib kul qilgan. “L.M.” dostonidagi tun tasvirida N. bu daraxtni tilga oladi:

Gohi Izam uzra lam’aafgan,
Shox uzra nechukki nori Ayman.

Maz.: Ayman daraxti shoxi ustidagi o‘tdek ba’zida Izam tog‘i (Arabiston) uzra porlar edi.

Majnunning qo‘y terisini yopinib, Layli cho‘ponning qo‘ylari ichida sevgilisi qabilasiga borgani haqidagi 29-bobda esa shunday baytga duch kelamiz:

Ey vodiyi Ayman ichra qo‘ychi,
Itmen senga, o‘z qoshingda qo‘ychi!

Maz.: Ey Ayman vodiysida cho‘ponlik qilib yurgan, men sening iting bo‘lay, yoningda asra (chunki shu bahona Layli qabilasiga borib, uning diydorini ko‘rish baxtiga muyassar bo‘laman).

Bu istilohni so‘fiylar turli-tuman ma’nolarda qo‘llaydilar. Jumladan, ilohiy tajalliyni qabul qilish u-n ko‘ngilni poklash yo‘lini ko‘zda tutadilar. A.V. deganda ilohiy olamga ham ishora qiladilar. U vahdati mutlaqni ham tamsil etadi, ya’ni u shunday joyki, u yerda “Analloh (Men Xudoman)” nidosidan o‘zga nido eshitilmaydi va begonaga u yoqqa yo‘l yo‘q.

A.V. mumtoz Sharq she’riyatidagi badiiy obrazlardan biri bo‘lib, N. o‘z she’rlarida talmeh san’ati vositasida bu voqeaga ishora qilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т.,2011; Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. – Душанбе, 1987; Жилд 2. – Душанбе, 1988; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва табъироти ирфоний. – Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.); Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988; Комилов Н. Тасаввуф. – Т., 2009.*

E.O.

“**AYYOMI VISOL O‘LDI YANA”** – N. ning “X.M.” devonlar turkumi tuzib bo‘lganidan keyin yozilgan 62 g‘azal, 2 ruboiy, 8 qit’a, 4 fardi asosida tartib berilgan to‘plam. Ularni taniqli matnshunos F.Sulaymonova Istanbulning To‘pqopi saroyidagi 1496–1497-yy.da Hirotda Muhammad Toqiy va Parij milliy kutubxonasida saqlanayotgan 1525–1527-yy.da Hirotda Ali Hijroniylar tomonidan ko‘chirilgan kulliyotlari, Nyu-Yorkning Metropoliten muzeyidagi 1499–1520-yy.da Hirotda shoh kutubxonasi u-n ko‘chirilgan “Terma devon”ning qiyosiy tadqiqi asosida aniqlagan.

Bu she’rlarda keksalikdan shikoyat, xastalikdan hasrat mazmunlari ustunlik qiladi. M-n:

Sen quyosh yanglig‘ yorub subhi
shabob ayyomida,
Bizga tundek tiyralik qismat qarilig‘
shomida.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Айёми висол ўлди яна (Янги топилган ғазаллар). – Т., 1995; Ҳайитметов А. Навоийхонлик суҳбатлари. – Т., 1993.*

M.A.



AYNIY SADRIDDIN SAIDMURODZODA (1878, Buxoro, – 1954, Tojikiston) – adib, olim. O‘zbek va tojik tillarida ijod qilgan. Tojikiston FAning birinchi prezidenti (1951–1954), Tojikiston Qahramoni (1997), Tojikistonda xizmat ko‘rsatgan fan xodimi (1940), O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan xodimi (1949). O‘zbekiston madaniyat xodimi (1943), f.f. d-ri (1948), prof. (1949), akad. (1951).

A.S.S. boshlang‘ich ta’limni Buxoro madrasalarida olgan. Dastlab Sifliy, Muhtojiy, Jununiy, keyinchalik (1896-y.dan) Ayniy taxallusi b-n tojikcha she’rlar yozgan.

A.S.S. adabiyotshunos, tilshunos, sharqshunos olim sifatida “Firdavsiy va uning “Shohnoma”si haqida” (1934), “Kamol Xo‘jandiy”, “Shayxurrais Abu Ali ibn Sino” (1939), “Ustod Rudakiy” (1940), “Shayx Muslihiddin Sa’diy Sheroziy” (1942), “Alisher Navoiy” (1948), “Zayniddin Vosifiy” (uning “Badoye’ ul-vaqoye” asari haqida”) (1946), “Mirza Abdulqodir Bedil” (1954) tadqiqotlarini yaratdi. Muqimiy, G‘afur G‘ulom va Said Nazar ijodi haqida maqolalar e’lon qildi. “Fors va tojik tillari haqida”, “Tojik tili” kabi ilmiy ishlari tojik tilshunosligi u-n muhim voqea bo‘ldi.

A.S.S. mashg‘ul bo‘lgan adabiyotshunoslikning aniq muammolaridan biri ulug‘ o‘zbek shoiri va mutafakkiri N. hayoti va ijodidir. U o‘zining 1926-y.da tuzgan “Namunayi adabiyoti tojik” nomli kitobiga N.ni ham kiritib, uning forscha-tojikcha “T.A.” qasidasidan 18 bayt keltiradi. Bu b-n N.ga tojik adabiyoti tarixidan o‘rin berib, uning bu adabiyotga xizmatini misollar b-n ta’kidlab ko‘rsatdi. 20-yy.dayoq buyuk shoir haqida bir necha maqolalar ham yozdi. O‘zbek adabiyotshunoslari orasida “Navoiy biz uchun kerakmi yoki kerak emasmi?” – degan masala yuzasidan keskin bahs bo‘lib turgan 20-30-yy. da, A.S.S. hech ikkilanmay bu savolga amaliy javob berdi va yangi n.shunoslikning boshlovchilaridan biri sifatida maydonga chiqdi.

A.S.S.ning N. haqidagi ilk tadqiqoti 1938-y. da ulug‘ shoir tavalludining 500 yilligiga tayyorgarlik ko‘rish chog‘ida yozilgan. Aniqrog‘i, “Mir Alisher Navoiy” maqolasi 1938-y.da “Tojikistoni surx”, 1939-y.da “Ro‘znomayi muallimon” gazetalarida bosilgan. Unda N.ning tug‘ilishi, o‘smirlik yillari, Hirot-u Mashhadda ta’lim olgani; buyuk mutafakkir yashagan siyosiy, ijtimoiy, madaniy muhit, N.ning tojik-fors adabiyoti vakillariga munosabati xususida bahs yuritilgan.

Olimning 1941-y.da N. hayoti va ijodiga bag‘ishlangan navbatdagi “Alisheri Navoiy” nomli maqolasi “Sharqi Surx” jurnalining bir nechta sonlarida nashr qilinadi. Bu maqola A.S.S.ning “Alisher Navoiy” nomli tadqiqotini yozishga mustahkam poydevor bo‘ldi. Mazkur tadqiqot 200 betdan ortiq bo‘lib, 1941-y.da N. tavalludining 500 yilligi munosabati b-n nashr etilgan. Kitobda N.ning hayoti, adabiy, siyosiy va ijtimoiy faoliyati, serqirra ijodi borasida so‘z yuritilgan bo‘lsa, oxirgi bobida N.ning fors-tojik tillaridagi g‘azallari tadqiqiga alohida e’tibor qaratilgan. Olim ulug‘ shoirning forsiy she’rlari “Devoni forsi”ga jamlanganini aytib, Foniy taxallusi b-n yozilgan namunalarni misol tariqasida ko‘rsatadi. 40-yy.da N.ning forsiy merosini tiklash ustida matnshunoslik ishini olib bordi. Lekin bu ish g‘oyatda mashaqqat b-n kechdi. Buning asosiy sababi ma’lum bo‘lgan qo‘lyozma fondlarida “D.F.”ning asl qo‘lyozma nusxasi yo‘qligi edi. Shunga qaramay, A.S.S. Foniy taxallusli ko‘p shoirlarning she’rlari orasidan N.

– Foniyning 6 g‘azalini aniqlagan. Bu “Devoni Foniy” qo‘lyozmasi olimlarimiz tomonidan chet ellar (Fransiya, Turkiya, Eron)da borligi aniqlanib, fotonusxasi qo‘lga kiritilgunga qadar asosiy manba sifatida qaraldi. Aytish lozimki, o‘sha paytda A.S.S. hali N.ning “Devoni Foniy”sidan bexabarligi u-n ham she’rlarni tanlashda xatolikka yo‘l qo‘ygan, keltirgan g‘azallarning bir qismi Foniy – N.ga emas, balki Foniy – Kashmiriy qalamiga mansub bo‘lgani ilmda keyinchalik Ali Muhammadiy Xurosoniy tomonidan dalillangan.

A.S.S.ning n.shunoslikdagi ulkan xizmati matnshunoslik b-n bog‘langan. 30-yy.da A., bir tomondan, N. “X.”sining ommaviy nashrini tayyorlash ustida ish olib bordi. Ikkinchi tomondan, uni N.ning “Devoni Foniy”si hamda ulug‘ shoirning fors-tojik tilidagi merosini tayin etish masalasi qiziqtirardi.

A.S.S. tomonidan qisqartirilib, ma’lum qismlari nasrga aylantirilgan, ko‘pgina baytlar va so‘zlar izohlanib, 1940-y.da lotin alifbosida, 1947-y.da kirill alifbosida nashr etilgan “X.” nusxasi o‘zbek madaniy hayotida katta voqea bo‘ldi. Garchi o‘tmishda N. asarlari bo‘yicha lug‘atlar tuzilgan va ko‘pgina so‘zlar izohlangan bo‘lsa ham, bu shakldagi ishlar b-n tor doiradagi mutaxassislargina tanish edi. N. dostonlarining matnlari esa keng kitobxonlar ommasi u-n tilining murakkabligi tufayli tushunarsiz bo‘lib kelardi. A.S.S. “X.” dostonlari matnlarini izohlash, ularga lug‘atlar tuzish, ulardagi she’riy san’atlarni tushuntirish, qiyin baytlarni soddalashtirib berish ustida ko‘p yillar ilmiy tekshirish olib bordi. Uning “X.” baytlariga va ayrim so‘zlariga izohlari hamon o‘z qimmatini yo‘qotmagan. N. asarlari, xususan, “Xamsa” dostonlari ilmiy-tanqidiy matnini yaratish va nashr etish u-n ko‘p izlanishlar olib borgan Porso Shamsiyev o‘zidan oldingi Sharq va G‘arb matnshunoslarining faoliyatini, matnshunoslik tamoyillarini puxta o‘rgangan. Biroq ustod A.S.S. tajribalarini e’tirof etib: “… Bu yerda atoqli yozuvchi, marhum Sadriddin Ayniyning “Xamsa” dostoni ustidagi qimmatli ilmiy ishini alohida qayd etish kerak. S.Ayniy “Xamsa” dostonlarini mohirlik b-n qisqartirib, qisqargan joylarini nasriy yo‘l b-n badiiy ifodasini berdi. Asarning ko‘p sahifalarini ilmiy izohlar b-n bezatdi. Shu b-n muxtasar “Xamsa”ni elga manzur qildi…”, – deydi. Aslida asarlardagi izohlar asl matnni xalqqa yetkazish, tushuntirish u-n bir vosita edi. Hatto Porso Shamsiyev ba’zi o‘rinlarda A.S.S.ning N. “X.”sini qisqartirib tayyorlangan nashridan iqtiboslar oladi.

A.S.S.ning n.shunoslikdagi katta xizmatlaridan biri ulug‘ shoirning biografiyasi va ijodi ustidagi ilmiy tekshirishlaridir. 30-40-yy.da A.S.S. “Alisher Navoiy” monografiyasi ustida ish olib bordi va bu asar N. tavalludining 500 yillik yubileyiga munosib sovg‘a bo‘ldi. A.S.S. unda N. hayoti va ijodini yuzlab manbalar va n.shunos olimlar qo‘lga kiritgan yutuqlar asosida yoritdi. A.S.S. ulug‘ shoir ijodi va hayotini monografik janrda yoritishga katta ahamiyat berar edi.

A.S.S.ning “Alisher Navoiy” monografiyasi ko‘p jihatdan uning o‘z ilmiy kuzatishlari natijasida yuzaga kelgan bo‘lib, mashhur rus sharqshunosi Y.E.Bertelsning “Навои” monografiyasi b-n bir vaqtda yaratilgan, bir qancha masalalarda O.Sharafiddinov kitobini to‘ldirgan edi. Bu asarda ustod A.S.S. temuriylar orasidagi o‘zaro kurashlar tarixiga oid, N.ning qayerda tug‘ilgan, qanday muhitda tarbiya topgani, uning yoshligi qanday o‘tgani masalalariga oid bir qancha yangi ma’lumotlar berdi.

N.ning yigitlik yillari, vazirlik davri, qarigan chog‘lari A.S.S.ning monografiyasida o‘zining butun murakkabliklari b-n to‘g‘ri yoritilgan. Shu b-n birga A.S.S. bu kitobida N.ning bir qancha asarlari tahlilini ham beradi, bu tahlil xuddi bugun yozilganday hamon o‘z ilmiy qimmatini to‘la saqlab kelmoqda. M-n, N. davrida, ma’lumki, adabiyotda muammo janri keng tarqalgan edi. N.shunos olimlardan hech kim ustod A.S.S.chalik birinchi bo‘lib bu janr tarixi, xususiyatlari va tarixiy ahamiyatiga to‘g‘ri va xolisona baho bermagan.

A.S.S.ning N. haqida yana “X.”ga yozgan “Alisher Navoiyning “Xamsa”si” maqolasi (1947), “Ulug‘ o‘zbek shoiri” to‘plamiga yozilgan “Alisher Navoiy va tojik adabiyoti” (1948) maqolasi bor.

U o‘z faoliyatida n.shunoslikning nazariy muammolari b-n ham izchil mashg‘ul bo‘lgan. M-n, uning “X.” munosabati b-n N.ning ijodiy metodiga to‘xtalib aytgan quyidagi fikri e’tiborga loyiqdir: “Alisher “Xamsa”da zamonasining bor ahvolini va qisman o‘z ahvolini aks ettirgan. “Xamsa” dostonlaridagi salbiy tiplarni (N.) o‘z zamonasidan olgan va ularga qarama-qarshi qilib o‘z xayol va orzusidagi ijobiy tiplarni yaratib, taqlid va ibrat namunasi sifatida bergan”.

Shu nuqtayi nazardan “X.”ning oxirgi dostoni – “S.I.”dagi bosh qahramon – Iskandar obraziga to‘xtalib, “Alisher Navoiy” monografiyasida yozadi: “Navoiy “Saddi Iskandariy”da o‘z orzularini mujassamlashtirib bergan”.

Badiiylik, poetika masalalarida A.S.S.ning 30-yy.dan boshlaboq N. asarlaridagi klassik she’riy san’at namunalariga katta e’tibor bergani g‘oyat tahsinga sazovor. U “X.” izohlarida *ifrot, sahli mumtane’, tashbeh, tashbehi tom, tashbehi musalsal, talozum, tazod, tanosub, tarse, tardi aks* kabi she’riy san’atlar va boshqa so‘z o‘yinlari izohiga N. dostonlaridan o‘nlab klassik misollar keltirgan va bu san’atlarni sodda qilib tushuntirib bergan.

A.S.S. n.shunoslik rivojiga o‘zining g‘oyat ulkan hissasini qo‘shdi. Uning bu sohadagi chuqur ilmiy tadqiqotlari bugungi kunda ham jamiyatimiz taraqqiyotiga xizmat qilmoqda.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Девони Фоний. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Ўзбек насри анталогияси. Садриддин Айний, https://ziyouz.uz; Куллиёт. Жилд 14, китоби 2. – Душанбе, 1963; Алишери Навоӣ. Шарқи Сурх, 1941. – № 1,2,4,5; Тожикистони Сурх, 29-30 декабри 1938. Азизқулов Ж., Мулложонова З. Феҳристи асарҳои С.Айнӣ ва адабиёти оид ба ӯ. – Душанбе, 1963; Брагинский И.С. Проблемы творчества Садриддина Айни. – Душанбе, 1974; Сайфуллоев А. Садриддин Айнӣ – Қаҳрамони Тожикистон. – Хужанд, 1998; Айнӣ. Энсиклопедияи миллии тожик. – Жилд 1. – Душанбе, 2011.*

Sh.R., M.Sh.

AYNUL-YAQIN (ar. – ko‘z b-n ko‘rib ishonmoq) – tasavvufda ilmul-yaqindan keyingi pog‘ona. So‘fiy qalbida paydo bo‘lgan irfoniy muroqaba vositasida vujudga keladigan ilm. Orif A.Y.dan keyin Haqqul-yaqin bosqichiga yetadi.

N. bu haqda “N.M.” tazkirasida shunday deydi: “Xoja Muhammad b. Abu Ahmad Abdol Chishtiy (q.s.) Otasidin so‘ngra aning qoyim-maqomi erdi. Va yigirma to‘rt yoshida diniy va yaqiniy (ilmul-yaqin, aynul yaqin va haqqul-yaqin) ulum-u maorif kasb qilib erdi”.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алиакбар Деҳхудо. Луғатнома. 1-жилд. – Теҳрон, 1998; Комилов Н. Тасаввуф. – Т., 2009.*

Muh.A.

“AYN UL-HAYOT” (“Hayot chashmasi”) – N.ning fors tilidagi “S.Z.” qasidalar turkumining 2-qasidasi. Ramali musammani maqsur vaznida yozilgan 106 baytli bu qasida Muhammad (s.a.v.) na’tiga bag‘ishlangan. “S.Z.” yaxlit bir asar deb qaralgani u-n uning ilk qasidasi Alloh taolo tavhidiga, ikkinchisi esa Muhammad (s.a.v.) me’rojiga bag‘ishlangan. Me’roj N.ning sevimli mavzusi bo‘lib, boshqa shoirlar kabi u ham Payg‘ambar me’rojida tasavvuf falsafasiga hamohanglik – so‘fiylarning ruhiy uruji (yuksalishi), tariqat maqomlarini egallab, Parvardigor huzuriga musharraf bo‘lishi g‘oyasining isbotini ko‘radi.

“A.H.” qasidasida ham, asosan, me’roj tuni tasvirlangan va bu borada alohida yo‘l tanlangan. Lekin uning faqat 40 bayti bevosita Payg‘ambarning Arshga yuksalishi tasviriga bag‘ishlangan bo‘lib, qolgan 66 baytida esa Rasulullohning yo‘lga chiqqunlarigacha bo‘lgan osmon holati, sobit-u sayyora, yer ashyolari birma-bir

tasvirlanadi. Go‘yo butun Koinot Payg‘ambarlar sarvarining me’rojiga tayyorgarlik ko‘rayotgani, bezanib, mushtoq bo‘lib, uni kutayotgani bayon qilinadi. Zero, bu Parvardigor o‘z habibi b-n diydor ko‘rishgan fayzli va shukuhli tun edi. Buni asarning ilk baytidanoq sezish mumkin:

Hojiboni shab chu shodurvoni savdo afganand,
Jilva dar xayli butoni mohsiymo afganand.

Tarj.: Tun pardadorlari qora chodirlarini yoyganlarida oy yuzli go‘zallar guruhiga jilva qiladilar.

Bu yerda savdo tayyorgarlik, faol harakat ma’nosini bildiradi. Hojib so‘zi pardadordan tashqari, qo‘riqchi farishtalar ma’nosini ham ifodalaydi. Oy yuzli go‘zallar esa sayyoralardir. Binobarin, shoir tun farishtalari taraddudga tushib, shohona chodirlar qurib, sayyoralarni bezatdilar, deb lutf etadi.

“A.H.” qasidasida Muhammad (s.a.v.) sifatlari madh etilib, oxirida N. o‘zini umidvor ummatlardan ekanini aytib, Payg‘ambardan o‘zini shafoat qilishini so‘raydi.

Qasidada N.ning shoirlik salohiyati, keng qamrovli shoirona nigoh b-n qalam surishi o‘quvchini hayratga solib, ko‘ngliga cheksiz zavq-u surur bag‘ishlaydi. “M.L.” asarida uning o‘zi bu haqda “Ayn ul-hayot” qasidasi zulolin yetkurupmenki, g‘aflat ahlining o‘luk badanlarig‘a jon kiyurupmen”, deb e’tirof etadi.

“A.H.” qasidasi S.Rafiddinov tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan.

Ad.: *Алишер Навоий. Девони Фоний. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд– Т., 2011; Комилов Н. Хизр чашмаси. – Т., 2005.*

N.K., E.O.

AYN UL-QUZZOT (taxallusi; to‘liq ismi: Abulmaoniy ibn Abdulloh ibn Abubakr Muhammad ibn Ali ibn Hasan ibn Ali Miyonjiy Hamadoniy (1099 − Hamadon − 1131) − fors-tojik mutasavvif shoiri, olimi, mutafakkiri. O‘z davrining barcha ilmlarida tengsiz bo‘lib, “zamon oriflari peshvosi”, “asr yagonasi” sifatida ulug‘langan. Tasavvuf nazariyotchilaridan bo‘lib, asarlarida ba’zi qaltis fikrlarni bayon qilgani, ayrim diniy ahkomlarni tanqid qilgani u-n uni dorga osib, jasadini o‘tda kuydirganlar.

Qisqa umrida arab va fors-tojik tillarida o‘zidan boy meros qoldirgan. “Uning ilohiy hikmat va tabiatshunoslik ilmlariga oid “Yazdonshinoxt” (“Xudoni tanish”), tasavvufning o‘n asosini talqin qiluvchi “Tamhidot” (“Tekislash”), Xudoning sifatlari va zotiga bag‘ishlangan “Zubdat ul-haqoyiq” (“Haqiqatlar qaymog‘i”), shuningdek, “Tafsiri Qur’on” (“Qur’on tafsiri”), “Maktubot” (“Maktublar”), “Sharhi kalimoti qisori Bobo Tohir” (“Bobo Tohir so‘zlarining qisqacha sharhi”) asarlari mashhur.

Adabiy asarlaridan “Lavoyih” (“Loyihalar”) diqqatga sazovor bo‘lib, 301 fasldan iborat. Muallif uni “Tamhidot” va “Maktubot” asarlaridan olingan she’rlar va dilo‘rtar ruboiylar b-n boyitgan.

N. “N.M.”da unga alohida fiqra ajratib: “*Ne arabiy va ne forsiy onchakim, haqoyiq-u daqoyi kashfi va sharhi ul qilibdur, bu toifadan oz kishi qilmish bo‘lg‘ay. Va ondin xavoriqi odot ihyo-yu amvotqacha zuhurg‘a kelibdurlar*”, – deb yozadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988; Ислом. Энциклопедия. – Т., 2004; Айнулқуззот Ҳамадоний. Рубоийлар // Донишмандлар туҳфаси. – Т., 2009.*

E.O.

AYSH (ar.) – 1. Hayot, turmush, tiriklik. 2. Huzur-halovat, rohat-farog‘at, nash’-u namo. 3. Kayf-safo, ishrat.

Tasavvufda Haqqa yaqinlikdan hosil bo‘lgan huzur va uni idrok etish, his qilish. Ko‘ngil halovati, ruhiy xotirjamlik.

Sahl Tustariyning aytishicha, A. 4 xildir: 1) farishtalarning A. toat-ibodatda; 2) payg‘ambarlarning A. ma’rifatda va vahiyni kutishda; 3) siddiqlarning A.i iqtidorda; 4) xoh dono, xoh nodon, xoh zohid, xoh obid bo‘lsin, boshqa barcha kishilarning A. yeb-ichishda.

N. ijodida A. o‘zining barcha ma’nolarida keng qo‘llanadi. M-n:

Piri dayr orost bazmi aysh-u xush boshad agar
Bazmi rindon az jamoli mug‘bacha yobad rivoj.

Tarj.: Dayr piri aysh bazmini tashkil etdi, rindlar bazmi ham mug‘bacha jamolidan fayzli bo‘lsa, yaxshi bo‘lar edi.

Kom-u nishot-u aysh ba xoson nasib shud,
Az mo g‘ayri mehnat-u dard-u balo mapurs.

Tarj.: Aysh-u shodlig-u maqsad xos kishilarga nasib etdi, bizdan g‘am-u dard-u balodan boshqa narsani so‘rama.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва табъироти ирфоний. – Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.); Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005; Абдуллаев А. Тасаввуф ва унинг намояндалари. – Т., 2009; Истилоҳоти сўфиён. – Теҳрон, 1388 (ҳ.-ш.).*

E.O.

AYTMURATOV Dao‘len (1933) – shoir, dramaturg, olim. Moskvadagi Jahon adabiyoti institutini tamomlagan. “Amudaryo”, jurnalida bo‘lim mudiri, “Jetkenshek” gazetasida adabiy xodim, O‘zR FA Qoraqalpog‘iston bo‘limining Til va adabiyot institutida ilmiy xodim bo‘lib ishlagan.

U N.ning “Saylanma”larini ikki marta (1977, 1991) nashr qildirgan. Qoraqalpog‘istondagi N. asarlarining katta tarjimoni. Unga “Qoraqalpog‘istonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi” faxriy unvoni berilgan.

K.Q.

AYYUB (a.s.) – payg‘ambar, Qur’oni Karimda Ayyub (a.s.) ismi 4 marta (4:163, 6:84, 21:83, 38:41) zikr etilgan. U Ya’qub payg‘ambarning akalari Iysning (ba’zi manbalarda Ays) zurriyotidan bo‘lib, nasabi Ayyub ibn Ma’sub ibn Ravoh ibn Rum ibn Iys ibn Is’hoqdir.

N. “T.A.H.” asarida “Ayyubi Sabur (a.s.)” haqida alohida fasl ajratib, uning onasi Lut (a.s.) ning qizi, otasi esa Iys ibni Is’hoq (a.s.) avlodidin ekanini, tug‘ilgan joyi Rum, ammo Shomda yashaganini yozadi. Ko‘p mol-dunyo va o‘nta o‘g‘il sohibi bo‘lgan A. (a.s.) o‘z vaqtini boshqa narsaga sarflamasdan faqat ibodat b-n shug‘ullangan.

A. (a.s.)ni Alloh taolo ikkita sinovga duchor qiladi: birinchisi, butun mol dunyolari yo‘q bo‘lib, farzandlari ham tom ostida qolib nobud bo‘ladi. Ikkinchidan, og‘ir dardga mubtalo bo‘lib, badanlari qurtlab ketadi, tillari va qalblaridan boshqa sog‘ joylari qolmaydi.

N. “T.A.H.” keltirganki, A. (a.s.) tasbeh va ibodatga berilgani u-n Alloh taolo uning holatini farishtalariga ko‘rsatib, “Mani ibodatimdan boshqa narsalarga parvo qilmaydi”, deb faxrlangan. Farishtalar Xudoga aytadilarki, Sen uning ko‘nglini hamma narsadan xotirjam qilganingdan keyin, albatta, ibodatingdan boshqa narsani qilmaydi. Shunda Alloh farishtalarga har qanday holatda A. (a.s.)ning ibodatni tark etmasligini aytadi va uni sinovlarga, paydarpay balolarga mubtalo etadi.

N. asarda A. (a.s.)ning xotini Rahimaning vafodorligini e’tirof etgani holda barcha qiyinchiliklar tugab, ro‘shnolikka erishishganidan so‘ng “jazolangani”ni ham eslatib o‘tadi. Buning sababi esa shaytoni la’inning Rahimaga qilgan ig‘vosi edi. Bir kuni eriga yegulik izlab yurgan Rahimaga ayol suratida ko‘ringan shayton uning sochi evaziga pul taklif qiladi. Noiloj qolgan Rahima sochini qirqib sotadi. Ig‘vogar shayton esa undan oldin kelib, Ayyubga xotinini sochini ko‘rsatib, bo‘lmag‘ur ig‘volar qiladi. Xotini kelgach sochi kesilganini ko‘rgan A. (a.s.), agar tuzalsa, shu ishi u-n unga yuz darra urushini o‘ziga o‘zi va’da berib qo‘yadi.

Alloh taolo A. (a.s.)ning duolarini ijobat qilganidan keyin, oyoqlari b-n yerni tepish va shu yerdan chiqqan buloq suvi b-n yuvinib va ichib poklanishni buyuradi.

A. (a.s.)ning xotini haqidagi o‘ziga bergan qasamini N. shunday izohlaydi: “Va Rahimaning pokligiga tanug‘lug‘ berib, mashhurdirkim, yuz supurgu yig‘ochni bir-biriga bog‘lab, Rahima uchasig‘a urub, ahd uhdasidii chiqti...”. Demak, Rahimaning pok ekaniga va bu shayton ig‘vo solganiga tanug‘lik (belgi) bo‘lganidan keyin, bu vaziyatdan A. (a.s.) Rahimani supurgining yuztasini bog‘lab, bir marotaba urganini aytib o‘tadi. N. A. (a.s.) qissasini dunyoning bebaqoligini ifodalovchi quyidagi bayt b-n yakunlaydi: She’r:

Besabr ulus garchi jahondin ketti,
Ayyub sabur dog‘i ketmay netti.

N. ijodida A. (a.s.) sabr timsoli sifatida keltiriladi:

Gar Ayyub sabr etti turluk baloda,
Vale ko‘rmadi hajr shomi balosin.

N. asarning Zulkifl (a.s.)ga bag‘ishlangan qismida ham A. (a.s.) haqida eslab o‘tadi: *“Zulkifl (a.s.)bobida ixtilof ko‘bdur. Ba’zi ani Dizqil debdurlar. Ba’zi debdurlarki, Ayyub (a.s.)ning o‘g‘lidur, oti Bashar”.*

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Носируддин Бурҳониддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. – Т., 2009; Пайғамбарлар тарихи (Исломият тарихи). – Т., 2014; Муҳаммад Сайиид Тантовий. Пайғамбарлар тарихи (Қуръони карим қиссалари). I-II. – Т., 2014; Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Ҳадис ва Ҳаёт. 20-жуз. Анбиёлар қиссаси. – Т., 2003; Davlatov O. Alisher Navoiy she’riyatida Qur’on oyatlari va hadislarning badiiy talqini. Fil. fan. dok. diss. – Samarqand, 2017; Моисеева А.В. Образы Кораническо-Библейских пророков в персидской средневековой религиозно-мистической литературе (II–XVII) дисс.... – Санкт-Петербург, 2021; G‘afurov I. Ayyub nidosi. Tarjimalar. – T., 2021.*

S.R., H.A.

“AYYUBI XALAF” – “Noxalaf o‘g‘rining egriligini tuzgoni...” – “H.A.” dostonidagi haqiqiy insonlar “sahobdek naf’ rason”larning ta’rif-tavsifiga bag‘ishlangan 13-maqolat so‘nggida keltirilgan hikoya. Uning qahramoni Ayyub payg‘ambar bo‘lib, diniy rivoyatlarga ko‘ra, uning haqiqiy insoniyligi taqdirdan kelgan hamma azob-uqubatlarga bardosh bera olganida, norozilik izhor etmaganidadir. Mazkur hikoyada, yolg‘iz, kasal bo‘lib yotgan Ayyubning uyiga tunda lahim kavlab, u orqali yoshgina bir o‘g‘ri kiradi. U Ayyubni ko‘rmasdan bor narsani yig‘ishtirib, olib chiqib ketmoqchi bo‘ladi. Lekin lahim yo‘li torlik qilib, o‘g‘ri yuk b-n u yerga sig‘maydi. N. uning ustidan kulib, xalq maqoli (“Sichqon sig‘mas iniga, g‘alvir bog‘lar dumiga”)ni qo‘llagan holda quyidagi baytlarni yozadi:

Naqbg‘a kirgach, kichik erdi to‘shuk,
Sig‘madi kim, behad ulug‘ erdi yuk.
Tor ini sichqong‘a solib erdi g‘am,
Quyrug‘iga bog‘ladi g‘arbol ham.

Bu ahvolni yotgan joyida ohista kuzatib turgan Ayyub uning ahvoliga achinib, ham istehzo bildirib, teshikdan emas, eshikdan chiqib ketishni maslahat beradi va ochiq turgan eshikka ishora qiladi:

Kim yuk ulug‘dir, dog‘i naqbing kichik,
Yo‘l sari kelgilki, ochuqdir eshik.

Ayyubning kechirimliligi, oliyjanobligi o‘g‘rini lol etadi. Shu kundan boshlab, u o‘g‘rilikni tashlab, yaxshi yo‘lga kiradi. Hikoyatdagi Ayyub faqatgina yo‘l ko‘rsatuvchi emas, inson qalbidagi ma’naviy xastaliklarni davolay oladigan hoziq tabib hamda mohir murabbiy hamdir.

Bunda N. tasvirlagan Ayyub o‘z yuksak insoniy fazilatlari, oliyjanobligi b-n pastkashlikka

yuz o‘girgan, harom yo‘lga kirgan bir kishiga to‘g‘ri hayot yo‘lini ko‘rsatadi. Ya’ni u kechirimli, o‘ta bosiq, bag‘ri keng va pok inson. “A.X.” iborasidagi “xalaf” so‘zi ham uning insonlikka munosib, sof ekanini bildiradi.

Ad: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Ўзбек адабиёти тарихи. 5 томлик, 2-том. – Т., 1977.*

Ab.H., H.A.

AKRAMOV Botirxon (1932, Qirg‘iziston, O‘sh – 2018, Toshkent) n.shunos olim. 1954-y.da Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika instituti (hozirda universitet)da, so‘ng O‘zR FA Til va adabiyot instituti (hozirgi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti) da aspiranturada o‘qigan (1963–1966). F.f. d-ri, prof. Hamid Sulaymon rahbarligida nomzodlik (1967), “Zamonaviy o‘zbek she’riyatida poetik obraz muammosi (1960–1980)” mavzusida doktorlik ishini yoqlaydi (1990). Olimning she’riyat, xususan, N. ijodi haqida “Navoiy lirikasida miniatyur obrazlar” (1966), “Mustaqil daho” (1966), “Navoiy lirikasida hajr va vasl talqini” (1966), “Ko‘ngil chashmasidan qatralar” (1967), “O‘qig‘onga muborak ayla oni” (1985) singari maqolalar, “She’riyat gavhari” (1979), “Olamning butunligi” (ayrim boblari N.ga bag‘ishlangan, 1987), “Fasohat mulkining sohibqironi” (1991), “Navoiy shohbaytlari” (2007), “Navoiy tojbaytlari” kabi monografiya va risolalari shular jumlasidandir.

A.B.ning tadqiqotlari n.shunoslik taraqqiyotiga qo‘shilgan katta ulushdir. Olimning N. ijodiga bog‘liq tadqiqotlari b-n *“Fasohat mulkining sohibqironi”, “Navoiy shohbaytlari”* kabi asarlarida batafsil tanishish mumkin.

Ad.: *Акрамов Б. Фасоҳат мулкининг соҳибқирони. – Т., 1991; Акрамов Б. Навоий шоҳбайтлари. – Т., 2007.*

D.A.

AKS (ar. − chappa, teskari) − bayt yoki misrada so‘zlarning o‘rnini almashtirib qo‘llashga asoslangan lafziy san’at. Ba’zilar uni ma’naviy san’atga ham kiritadilar. Ayni jihatdan uni tabdil yoki tardi aks ham deydilar.

A. san’ati xilma-xil ko‘rinishlarga ega bo‘lib, N. ijodida ham uning rang-barang shakllarini ko‘ramiz. M-n:

Har ne ul buzdi, bu barin tuzdi,
Bu barin tuzdi, har ne ul buzdi.

A. san’atining namunalarini she’riyatning barcha janrlarida ko‘rish mumkin. M-n, “X.” dostonlarida bu usulning rang-barang ko‘rinishlariga duch kelamiz.

Xuroson badandur, Hiri jon anga,
Hiri jon, badandur Xuroson anga.

Qolmadi bir yerki, yurub olmadi,
Yerki yurub olmadi, bir qolmadi.

Razm aylasa, azm qilg‘umizdur,
Azm aylasa, razm qilg‘umizdur.

V.Rahmonov A. san’atini sinonimik A. va ma’naviy A. deb qo‘llanishiga ko‘ra ikki guruhga ajratadi. Sinonimik A.da ikkinchi misrada ilk misradagi so‘zlarning har bir qismidan bir so‘zning ma’nodoshi kelsa, ma’naviy A.da birinchi misradagi ish-harakat teskari tus oladi. Shuningdek, uning yozishicha: “Aks tarkibidagi so‘zlarning ayrimlari kelishik, egalik yoki shaxs-son qo‘shimchalarini olib kelganda, aks jarayonida o‘sha qo‘shimchalar o‘rni almashinishi yoxud bir so‘zdan ikkinchisiga o‘tishi mumkin. Yana aks san’at bo‘lib kelgan misralarni qismlarga ajratishda o‘zaro tafovut qiluvchi holatlar uchraydi”.

A. san’ati har bir misrada alohida-alohida kelishi ham mumkin. Yoki baytning faqat bir misrasida ham bo‘ladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-жилдлар. – Т., 2011; Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъу-с-санойиъ (А.Рустамов тарж.). – Т., 1981; Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Л., 1972; Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т., 2014.*

E.O.

ADL (AL-ADL) – Allohning to‘qson to‘qqizta ismining o‘ttizinchisi. Ma’lumki, Xudoning har bir ismi uning bir sifati b-n bog‘liq. A. ismi ham shunday. U eng oliy adolat Allohga tegishli ekanini bildiradi. Bu shunday adolatki, unda zarracha qilingan yaxshilik mukofotsiz, zarracha qilingan yomonlik jazosiz qolmaydi, zero Alloh huzurida yaxshilik va yomonlik birdek emas.

N. Allohning “Al-Adl” ismiga maxsus to‘xtalib o‘tgan. “S.I.” dostonining XX bobida u adolatni ta’rif qiladi va yuqoridagi fikrni, ya’ni Allohning har bir ismi uning bir sifatiga dalolat qilishini ta’kidlaydi:

Ne amreki bo‘lg‘ay sifat doxili,
Haq otidir ul amrning foili.

Karam fartidindur karim o‘lmog‘i,
Tarahhum ko‘pidin rahim o‘lmog‘i.

Shu o‘rinda N. o‘ta maroqli mulohazani bayon etadi. Uningcha, agar Allohga xos karam sifati u-n u Karim ismini olsa yoki tarahhumi ko‘p u-n Rahim deb aytsa adolati u-n odil deb atalishi lozim edi. Lekin bunday emas. Uning odil ismi yo‘q, “Al-Adl” oti bor:

Vale oti asmoda odil emas,
O‘qur chog‘da el ani odil demas.

Adolatqa yetganda qilmish Xudo,
O‘z otini “Al-Adl” birla ado.

N.ning fikricha, Allohning o‘z otini odil emas, Al-Adl deb ado etishi uning adolatiga nechog‘lik e’tibor berganidan A.ning Alloh nazarida naqadar yuqori turishidan dalolatdir.

Bu otig‘a ko‘praq uchun ehtimom,
Aning birla olamg‘a berdi nizom.

Agar adl yo‘q oshkor-u nihon,
Yaqin bilki, zer-u zabardur jahon.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005;*

Q.E.

“AL-LUG‘ATI AL-NAVOIYA VAL ISTISHHODAT AL-CHIG‘ATOIYA” – Q.: “ABUSHQA”

“ABUSHQA” – ushbu lug‘at chol, qariya ma’nosidagi abushqa so‘zi b-n boshlangani u-n fanda ko‘proq “Abushqa” nomi b-n mashhur. Ushbu lug‘at shoir asarlariga tuzilgan qomuslar ichida eng ko‘p tarqalgan bo‘lib, unda N.dan olingan mingga yaqin so‘zlar turk tilida izohlangan. Lug‘at qo‘lyozmalari Istanbul, Vena, Berlin, Toshkent, Sankt-Peterburg kutubxonalarida saqlanmoqda. Lekin u qachon va kim tomonidan tuzilgani masalasi hozircha ochiq qolmoqda. Olimlar o‘z tadqiqotlarida ko‘pincha uning 1868-y.da Sankt-Peterburgda V.V.Velyaminov-Zernov tomonidan nashr qilingan nusxasidan foydalanadilar. Bu nashr Sankt-Peterburg Imperator kutubxonasida saqlanayotgan qo‘lyozma asosida tayyorlangan. Ushbu nusxa oxirida quyidagi yozuv borligi noshir tomonidan alohida ta’kidlangan: “Tammat-ul lug‘at an-Navoiya val istishhodot al chig‘atoiya ala yadi al-faqir al-zaif Aloyi bin Muhibbiy al-sharif fi avositi jumodul avvali sana sab’a va sittin va tis’ami’a al-hijriyatin”, ya’ni “Faqir, sharif Aloyi bin Muhibbiy Navoiy guvohligidagi chig‘atoy so‘zlari lug‘atini o‘z qo‘li b-n 967-y.ning jumodul avval o‘rtalarida ko‘chirdi”.

Demak, ushbu lug‘at shoir vafotidan 60 yil keyin, ya’ni 1560-y. ko‘chirilgan bo‘lib, unda mumtoz o‘zbek tili fonetikasi, leksikologiyasi, morfologiyasi bo‘yicha noyob ma’lumotlar saqlangan. Og‘a (21 b) so‘zi izohida lug‘at N.ning quyidagi asarlari asosida tuzilgani qayd qilingan: 1. “M.”; 2. “Ch.H.”; 3. “N.J.”; 4. “S.M.”; 5. “N.M.”; 6. “L.T.”; 7. “M.Q.”; 8. “Tavorixi anbiyo va tavorixi mulk”; 9. “X.M.”; 10. “M.N.”; 11. “H.A.”; 12. “F.Sh.”; 13. “L.M.”; 14. “S.S.”; 15. “S.I.”; 16. “G‘.S.”; 17. “N.Sh.”; 18. “B.V.”; 19. “F.K.”; 20. “M.A.”; 21. “Munj.”; 22. “M.L.”; 23. “V.”; 24. “Manoqibi Mir Said Hasan Ardasher va Manoqibi Pahlavon Muhammad”; 25. “S.”. Lug‘atda, shuningdek, Lutfiy, Mir Haydar, Sulton Husayndan olingan misollar bor, ammo ular oz. Qomus arab alifbosidagi harflar asosida tuzilgan. Unda *j* va *ch* harfli so‘zlar “bobul jim”da izohlangan. *G* harfli so‘zlar *k* harfida berilgan. Harflar bo‘yicha boblar quydagicha nomlangan: bob-ul alif, bob ul-jim, bob ul-to, bob-ul kof va h.k. Ular b-n boshlanuvchi so‘zlar uch qismga bo‘lingan: maftuha, maksura, mazmuma. – M-n, bob-ul to harfiga keltirilgan misollar a) harf-ul *to al* maftuha, b) harf-ul *to al* maksura, v) harful to al mazmuma bo‘limlaridan iborat. So‘zlarning maftuxa, maksura, mazmuma fasllariga ajratilib berilishi, lug‘atdan foydalanishni yengillashtiradi. Harflar bo‘yicha so‘zlar miqdori turlicha. Ayrim harflarga ko‘p, ayrimlariga kam so‘z keltirilgan. Chunonchi alif, kof, yoy harflariga ko‘p so‘z keltirilgan. X harfiga faqat birgina misol berilgan. Izohlanayotgan so‘z qizil, izohlar qora siyohda yozilgan. Izohlanayotgan so‘z turli shakllarda berilgan. M-n, tiyib so‘zi tiya olmay, tiysa, tiydi shakllarida keltirilgan (200 b). Falonliq so‘zi, falong‘a, falonqa, falonga shakllarida izohlangan. Ayrim so‘zlarga tasdiqlovchi misol berilmagan. Chunonchi, uchov so‘zi misolsiz izohlangan: uchav – uchi demakdir (94 b).

Ammo aksariyat so‘zlar ma’nosi baytlar orqali tasdiqlangan:

اوچورسه– (95 b) suyindirsa demakdirki, Lutfiy ash’orinda kelur, bayt:

Ishq o‘tida Lutfiy yig‘lama ko‘p
Su birla o:ni o‘chursa bo‘lmas.

Ushbu lug‘atning ahamiyatli tomoni shundaki, unda mumtoz o‘zbek tili orfoepiya va orfografiyasiga doir muhim ma’lumotlar saqlangan. Bu esa XV asr tilini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Lug‘atchi *k* va *g* harflari bir xil yozilishini hisobga olib, *k* ni kofi arabiy, *g* ni kofi ajamiy terminlari orqali ko‘rsatgan.

Ad.: *Умаров Э. Эски ўзбек луғатлари. – Т., 1993.*

E.U.

ALANQUVO – mo‘g‘ul va turkiy xalqlar afsonalarining asosiy qahramoni. A. haqidagi afsonalar Mirxondning “Ravzat us-safo” Rashiddin Vatvotning “Jome’ ut-tavorix” kitobida uchraydi. Ularda yozilishicha, A. Yulduzxon degan hukmdorning pokiza, husnda tengsiz qizi bo‘lib, bo‘yi yetgach, uni o‘z amakisining o‘g‘liga beradilar. A. undan Elkadi va Yakjadi degan ikki o‘g‘il ko‘radi. Kutilmaganda eri vafot etib, o‘rnini A.ning o‘zi egallaydi. U mamlakat ishlari va ikki o‘g‘li tarbiyasi b-n kunlarini o‘tkaza boshlaydi. Bir kecha u yotgan uyning tuynugidan g‘ayritabiiy bir nur kirib, shu nurdan u homilador bo‘lib qoladi. Bu hol uni saroy amaldorlari, qarindoshlari oldida xijolatga solib qo‘yadi. A. hech kim b-n hech qanday yaqin munosabatda bo‘lmaganini aytib, saroy ahlidan ahvolni tekshirib ko‘rishni talab qiladi. Ahvolni o‘rganuvchilar chindan ham A.ning xatti-harakatlaridan hech qanday kamchilik topa olmaydilar. Uning homiladorligini ilohiy kuch ta’siri yuzaga chiqqan bir hodisa sifatida izohlaydilar. U yana podshoh bo‘lib qoladi. A. bir yo‘la uch o‘g‘il tug‘adi. Ularga Barqun Qabqi, Yo‘siqin Solchi va Bo‘zbahri degan ismlarni qo‘yadilar. Mo‘g‘ul va turklarning barcha hukmdor urug‘lari shulardan tarqalgan emish. Shundan kelib chiqib, N. “S.S.” dostonining kirish qismida Husayn Boyqaroni, uning kelib chiqishini madh etar ekan, onasini A.ga, otasini esa Chingizga o‘xshatadi:

Anga Chingiz ulug‘ ato kelgan,
Anosi xud Alonquvo kelgan.

N. mashhur A. afsonasiga talmeh san’ati vositasida ishora qilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Ҳайитметов А. Навоий ва Аланқуво афсонаси. “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси, 1984 йил, 10 февраль.*

Ab.H., B.R.

ALAST BAZMI – arabiy va forscha so‘zdan tarkib topib, “azaliyat bazmi, majlisi” mazmunidagi ibora. Qur’oni Karimning “A’rof” surasida (172-oyat) Allohning “Alastu bi-Robbikum” – Men sizning Robbingiz emasmi?” savoliga ruhlar “Qolu balo” – “Ha, shunday” deb javob qaytarishgani bayon qilingan. Bu voqea ruhlar badanga kirib o‘rnashmasdan ko‘p avval sodir bo‘lgan. Ayrim tasavvufiy asarlarda Alloh b-n ruhlar orasida ushbu *“Al-Miysoq”* – so‘zlashuv Odam (a.s.) vujudidan to‘rt ming yil muqaddam voqe bo‘lib, unga “Alast bazmi” yoki “Bazmi alast” deyilgan. Berilgan va’daning to‘g‘riligini sinash va bilish u-n Alloh taolo ruhlarni bu imtihon dunyosiga yuborilganiga ishorat ma’nosida mazkur ibora tasavvuf adabiyotida keng qo‘llanilgan. N. ham ilohiy bu hodisani *“subhi alast”, “sirri alast”, “jomi alast”* kabi obrazli iboralar orqali xotirlatadi:

Odami xokiyni chu subhi alast,
Ayladilar ruh mayi birla mast.

Yoki:

Tong emas bo‘lsa Navoiy mast to shomi abad,
Kim azal subhida bo‘lmish qismati jomi alast.

Bu haqda Abdulqodir Giloniy hazratlari shunday deydi: “Ruhlar “Miysoq” kunini unutdilar. Faqat Rahmon, borliqning rahmat manbayi (bo‘lgan Alloh) ularga rahmat qildi. Shu sababli samoviy kitoblar yubordi. Ular (insonlar)ga asliy Vatanni xotirlatmoq istadi. Bunga shu oyati karima ishora qilmoqda: “...Ularga Allohning ne’matini eslatgin... (Ibrohim: 14/5)”. Ya’ni ruhlar ila sodir bo‘lgan visol kunlarini eslat, deyilmoqda. Olami arvohda tavhidni qabul etgan Ruh, bu dunyoda ham o‘sha iqrorini unutmasligi kerak.

Adabiyotning asosiy g‘oyasi bo‘lgan Insonni o‘ziga tanitish va kamolga yetkazish tasavvufda “Alast bazmi”ni yodga olish b-n boshlanadi. Ushbu va’dalashish kuni – *“Al-Miysoq”* atalib, unda Odam (a.s.) zurriyotidan to qiyomatga qadar dunyoga keluvchi bandalar ruhining Yaratgan b-n ahdlashuvi sodir bo‘lgandir. Biroq inson kalimasi arabcha “nisyon” – “unutish” so‘zidan olinganligi ma’lum. N. ham g‘azallaridan birida buni alohida ta’kidlaydi:

Chu derlar insonni mushtaq o‘ldi nisyondin,
O‘zinu ahdin unutmoq etar dalolat anga.

Birov amonatini asray olmas, archi erur
Xudoy amonatini asramoq havolat anga.

Darhaqiqat, inson o‘z ahdini unutuvchidir. Biroq komil bir murshid ta’sirida “Al-Miysoq”, ya’ni ruhoniy ahdlashuv har doim xotirda turgan. Adabiyotimizda ham *“alast”, “bazmi alast”, “balo bazmi”, “qolu balo”* hodisasi b-n bog‘liq obrazli ifoda paydo bo‘lgan:

“Alast” xamrin kimga bersa, o‘shal soqiy,
“Balo” mayin mudom ichib yurur mangu boqiy.

Haq yo‘lchilari ta’kidlaganidek, komil bir murshidning muridga irshodi aslida “Alast” iqrorini xotirlamak erur. Tarbiya va zavq orqali murid bu maqomga ko‘tariladi. “Shariat va haqiqat orasini jam qilgan”, deya e’tirof etilgan Sahl ibn Abdulloh Tustariy aytadi: “Alloh ruhimga: “Ayo, men Robbingiz emasmanmi?” degani hanuz mening esimda bor. Men “Robbimizsan!” deb javob berdim”.

Ayniqsa, ruhiyat tasviri bo‘lgan irfoniy she’riyatda bunday ifodalar juda ko‘plab uchraydi.

Hali vujudga kirmagan damlaridayoq ruh oshiqligi boshlanganligiga ishora qiluvchi baytlaridan birida:

G‘arqi muhiti ishqing edi jon ila ko‘ngul,
Ul dam ruh emas edi tan birla oshno,–

degan N. aslida oshiqlikning eng yuksak darajasini tavsiflaydi. Zero, insoniyat qalbiga muhabbat urug‘i “Qolu Balo”da ekilgandi. O‘sha “Alast bazmi”ni xotirlash u-n yo‘lni muhofiz peshvoligida bosib o‘tmoq joizki, komil murshidning xizmati bunda tengsizdir.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011.*

I.H., M.A.

ALEKSANDR Nikolayevich Boldirev (1909, – 1993, Sankt-Peterburg) – sharqshunos-eronshunos. Tojikistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, f.f. d-ri, prof. Tojikiston Fanlar akademiyasida, shuningdek, Leningrad (hozirgi Sankt-Peterburg)da Ermitaj – Rossiya davlat badiiy va madaniy-tarixiy muzeyining Sharq bo‘limi katta ilmiy xodimi bo‘lib ishlagan. 1941-y. 31-iyulda akad. I.A.Orbeli rahbarligida “Badaxshon folklori va yozma adabiyoti” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. A.N.B. 1954-y. 23-iyunda N.ning kichik zamondoshi Zayniddin Vosifiyning “Badoye’ ul-vaqoye” asari bo‘yicha “Tojik yozuvchisi (XVI asr) Zayniddin Vosifiy va uning “Badoye’ ul-vaqoye’” asari” nomli doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Olim 1961-y.da “Badoye’ ul-vaqoye” asarning tanqidiy matnini ikki jildda chop etgan. Shuningdek, ushbu asarning yozilish tarixini, davr voqealarining bayoni, tarixiy shaxslar tasviri, hikoyatlar, umuman, Vosifiy uslubini puxta o‘rgangan va ustalik b-n uni fors tilidan rus tiliga tarjima qilgan. Ma’lumki, mazkur kitobda Vosifiy o‘z davrining buyuk zamondoshlari bo‘lgan Husayn Boyqaro, Jomiy, N.larning hayoti va ijodi haqida qimmatli ma’lumotlar ham bitgan.

1971-y. Kamol Ayniy tashabbusi b-n Tehronda uning ikkinchi nashri amalga oshirilgan.

O‘zbekistonda Zayniddin Vosifiyning “Badoye’ ul-vaqoye” asarini tarixchi olim Naim Norqulov o‘zbek tiliga tarjima qilgan.

Ad.: *Зайнаддин Васифи, таджикский писатель XVI в.: Опыт творч. биогр. – Сталинабад, 1957 (2-е изд. 1989); Зайн-ад-дин Васифи. – М., 1961; Персидская литература с VIII по начало XIX века // Краткая история литератур Ирана, Афганистана и Турции: курс лекций. – Л., 1971; Восифий Зайниддин Маҳмуд. Бадоеъ ул-вақоеъ (“Нодир воқеалар”). Форс тилидан Н.Норқулов таржимаси. – Т., 1979.*

O.T., Sh.R.

ALI Asg‘ar Hikmat (1892, Sheroz – 1980, Tehron) – siyosatshunos, diplomat, jurnalist, tarjimon va filolog olim. Tehrondagi Amerika kollejini tugatgan. Tehron universitetining birinchi rektori, Hunarmandchilik va san’at vaziri (1941), Adliya vaziri (1942), Sog‘liqni saqlash vaziri (1943), Hindistonda elchi (1953–1958), Tashqi ishlar vaziri (1958–1959) lavozimlarida ishlagan. A.A.H. mas’ul lavozimlarda ishlashiga qaramay adabiy va ma’rifiy ishlarga ham vaqt topa olgan, ko‘plab ilmiy maqolalar yozgan, 13 ga yaqin asar va V.Shekspirning “Romeo va Julyetta”, Lev Tolstoyning “Tirilish”, E.Braunning “Fors adabiyoti tarixi” (1948) kabi 10 dan oshiq badiiy va ilmiy asarlarni tarjima qilgan. Abdulloh Ansoriyning Qur’oni Karimga yozgan tafsiri asosida yaratilgan Abulfazl Maybudiyning “Kashf ul-asror”ini nashrga tayyorlagan. Jomiy va N. haqida (Zendagi-e Jāmi šāʿer-e irāni (Fors

shoiri Jomiyning tarjimayi holi, Tehron, 1941) va Resāla dar bāb-eAmir ʿAlišir Navāʾi (Tehron, 1947) tadqiqotlar olib borgan.

A.A.H.ning n.shunoslik oldidagi xizmatlaridan biri – "M.N."ning forsiy tilga Faxriy binni Sulton Muhammad Amiriy (Faxriy Hirotiy) va Muhammad binni Muborak Hakimshoh Qazviniy tomonidan qilingan tarjimalarini nashrga tayyorlagani va bu ishi b-n Eronda N. asarlarini nashrga tayyorlash va targʻib qilishga ragʻbat uygʻotganidir. Olim har ikki tarjimani bir jildda "M.N." nomi b-n nashr etadi (1945, 1984 qayta nashr). U soʻzboshida N. hayoti va ijodi, adabiy muhit, "M.N."ning ilmiy qimmati va tarjimonlarning yondashuvlari, qisqartirish va kiritmalar, asar nusxalari borasida qimmatli ma'lumotlar beradi. Soʻzboshidan soʻng "V."ning forsiy tildagi tarjimasidan namunalar keltiradi. Olim kitobni nashrga tayyorlashda Faxriy "Latoyifnoma"sining Britaniyadagi 7669 raqamli nusxasi, Hakimshoh Qazviniy va Shoh Ali binni Abdul Ali tarjimalarini qoʻlga kiritolmagani u-n Eron va Turkiya nashrlarini asos qilib olganini aytadi. Faxriy "Latoyifnoma"sining bir nusxasi Oqoyi Hoji Muhammad Naxichevoniy, Hakimshoh Qazviniy tarjimasining bir nusxasi olim Said Nafisiy qoʻlida mavjudligini aniqlaydi. Qazviniy tarjimasining Turkiyadagi 3788 raqamli nusxasi asosida Said Nafisiy nashridagi nuqsonlarni bartaraf etadi. Hoji Muhammad Naxichevoniy nusxasini Eronning Sipahsolor kutubxonasidagi turkiy qoʻlyozmalar (№2729, 100) b-n qiyoslaydi. Qazviniy tarjimasini Muhammadali Tarbiyat kutubxonasidagi bir va Sipohsolor kutubxonasidagi ikki turkiy qoʻlyozma b-n qiyoslab, kamchiliklarni toʻldiradi. Demak, A.A.H. mazkur tarjimalarni nashrga tayyorlashda Faxriy tarjimasining Oqoyi Hoji Muhammad Naxichevoniy, Hakimshoh Qazviniy tarjimasining Said Nafisiy qoʻlidagi nusxasi va uning Turkiya nusxasiga tayanadi. "M.N."ning Erondagi nusxalaridan qiyos u-n foydalanadi. Har ikki tarjimon "M.N."ning debocha qismini tushirib qoldirgani u-n olim kitobning toʻliq boʻlishini istaydi. Oqoyi Ismoil Xaziydan iltimos qilib, debochani fors tiliga tarjima qildiradi va kitobga kiritadi. Asarning fors tiliga tarjimalari va A.A.H. nashri haqida ilk marta A.N.Boldirevning "Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" asari forsiy tarjimalari" (1952), A.K.Borovkovning "Majolis un-nafois" (1947) maqolalarida ma'lumot berilgan. Afgʻonistonda N. asarlarini nashrga tayyorlagan Abdulloh Roʻyin ham "Majolis" matnini Faxriy Hirotiy va Muhammad Qazviniyning forsiycha tarjimalari matni asosida, izoh-havolalarni tarjimalar noshiri A.A.H. kitobidan olib nashrga tayyorlagan.

A.A.H. yana N.ning "D.F."sidagi forsiy gʻazallari boʻyicha ham tadqiqotlar olib borgan. 1948-y. may oyida Toshkentda boʻlib, devonning Tehrondagi nusxalari haqida ma'ruza qiladi, "Devoni Foniy"ning Hirot va "Shoʻroyi milliy" kutubxonasidagi nusxalari borasida ham ma'lumot beradi. Umuman, mashhur davlat arbobi A.A.H. N. asarlari manbalari, nashriga katta e'tibor qaratib, Erondagi n.shunoslikka turtki berdi. Olimning izidan borib, koʻplab eronlik olimlar N. asarlarini nashrga tayyorlashdi. Adabiyotshunos P.Izzatillayev Erondagi n.shunoslikka bagʻishlangan dissertatsiyasida (2022) koʻplab olimlar faoliyati haqida ma'lumot bergan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Амир Алишер Навои, Алишер бин Кичкина. Мажолис ун-нафоис. Ба эҳтимоми Али Асғар Ҳикмат. – Теҳрон, 1945, 1985; Воҳидов Р. "Мажолисун нафоис"нинг таржималари. – Т., 1984; Иззатиллаев П. Замонавий Эрон навоийшунослиги: тадқиқ, талқин ва таржима (филологик асарлар мисолида). Филол. фан. б. фалсафа доктори (PhD) дисс. автореферати. – Т., 2022; https://iranicaonline.org/articles/hekmat-ali-asgar*

O.T.

ALI DURDUZD (XV asr, Astrobod) – shoir. Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro"sida ma'lumot berilishicha, shirinsoʻz, hozirjavob, goʻzal tab' sohibi boʻlgan. She'rlari Omul va Xurosonda shuhrat qozongan. Astro-

bodga yopirilgan 1417-y.dagi vabo o‘latida xotini vafot etganida quyidagi ruboiyni aytgan:

Z-in voqea chun dil ba du nim ast maro,
Az murdani xeshtan chi bim ast maro.

Gum shud sadafe chunin Durduzdiyi man,
Durro du-se dar xona yatim ast maro.

Tarj.: Bu voqeadan yuragim go‘yo ikki pora bo‘ldi, endi o‘limdan ham qo‘rqmayman. Mening dur to‘la sadafim yo‘qoldi, lekin ikki-uch qimmatbaho dur xonamda qoldi.

A.D. hunarmandlar haqida shahrosho‘b g‘azallar ham yozgan:

Faryodi mo zi dasti nigori naqora chist?
Bo mo chu royi jang nadorad, naqora chist?

Tarj.: Nog‘ora biz bilan jang qilish niyatida emas, nega biz nog‘ora chaladigan nigor dastidan faryod chekamiz?

N. “M.N.” tazkirasida uning quyidagi matla’si yaxshi chiqqanini yozadi:

Guzasht umr-u nameoram az sharob guzashtan,
Ki, mast xoham az in olami xarob guzashtan.

Tarj.: Umr o‘tdi-yu, sira mayni tark etolmayman, chunki bu xarob olamdan mast ketmoqchiman.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Давлатшоҳи Самарқандий. Тазкират ушшуаро. – Теҳрон, 1338 (ҳ.-ш.); Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988.*

E.O.

ALI JALOYIR (1470-y.da qatl etilgan) – Yodgor Muhammad mirzoning amir ul-umarosi. Undan oldin Sulton Abulqosim Boburga (1452–1457-yy.) xizmat qilgan. Oqquyunli Uzun Hasan Yodgor mirzoga ko‘mak berib, Xurosonni egallash u-n yuborganda A.J. u b-n birga bo‘lgan. Husayn Boyqaro ularga qarshi ilg‘or tarzda 4000 kishidan iborat qo‘shin jo‘natgan. Sayyid Murod o‘g‘loqchi, Mir Ali miroxo‘r bu qo‘shinga boshliq etib tayinlangan. Jangda A.J g‘alaba qozongan (1469). Husayn Boyqaro b-n Yodgor Muhammad o‘rtasida Chinoron jangida A.J. Yodgor mirzo lashkarining barong‘or qismiga boshchilik qilgan. Ushbu jangda N. ham ishtirok etgan. Jang Husayn Boyqaroning g‘alabasi b-n tugagan. Shunga qaramay, Yodgor mirzo qaytadan kuch to‘plab, Hirotni egallashga muvaffaq bo‘lgan va taxtga o‘tirgan (1470). Yodgor mirzoning qisqa muddat davom etgan hukmronligi davrida butun hokimiyat A.J. qo‘lida bo‘lgan. Husayn Boyqaro to‘satdan hujum qilib, Hirotni egallagan vaqtda A.J. qatl qilingan. N. bu voqealarda faol ishtirok etgan. N. oilasi b-n A.J. oilasi o‘rtasida yaqinlik bo‘lgan. N.ning ukasi Darvesh Alibekning xotini A.J.ning qizi edi. A.J. ning o‘g‘li Husayn A.J. saroyda xizmat qilgan va N.ning yaqin kishilaridan hisoblangan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985.*

Q.E.

ALI IBN ABU TOLIB (r.a.) (t.y.n., 661-y. da o‘ldirilgan) – islomda “xulafo ar-roshidin” (“To‘g‘ri yo‘ldan borgan xalifalar”), dastlabki 4 xalifa – “choryorlar”ning to‘rtinchisi. Muhammad (s.a.v.)ning amakivachchasi va kuyovi (Fotimaning eri). Taxt u-n olib borgan kurashlari natijasida A.I.A.T. (r.a.) Ko‘fada o‘ldirilgan va o‘sha shaharda dafn etilgan.

A.I.A.T. (r.a.) “choryorlar”dan birigina emas, sarkarda, jasoratli shaxs sifatida ta’riflanadi. A.I-.A.T. (r.a.)ning sarguzashtlari, oti va qilichi haqida ko‘p afsona, rivoyatlar to‘qilgan.

Hazrat Ali (r.a.) shaxsi va siymosi N. asarlarida muayyan o‘rin egallaydi.

N. “L.T.” dostonida A. (r.a.)ga alohida bob ajratgan, uning Muhammad (s.a.v.)ga farzand o‘rnida ekani, fazilatlari haqida ko‘p yozilgani, A. (r.a.)ning oti – dulduli, qilichi – zulfiqori haqida yozadi, ismining “sher” ma’nosini jasorati

va qahramonligi b-n bog‘lab ta’riflaydi. N.ning “B.B.”dagi shoh bir g‘azalida kufr rishtalarini kesuvchi qaychini A. zulfiqoriga o‘xshatadi.

N.ning “N.J.” asari A. (r.a.) hikmatlarining she’rdagi badiiy talqinidan iborat. Asar muqaddimasida N. hazrat A. (r.a.)ga bag‘ishlab ushbu ruboiyni bitadi:

Daryoyi ulum-u mehri burji karam ul,
Olam tanining joni-yu jononi ham ul,
Sultoni rusul birla qadam barqadam ul,
Farzand-u rafiq-u kuyov-u ibn ul alam ul.

Shuningdek, u o‘zining Hazrat Ali so‘zlarini o‘qib, bahra topgani, ularni turkiy tilda bayon etishni orzu qilgani va bu niyatini amalga oshirgani haqida yozadi.

A. (r.a.) haqida N. “M.A.” asarida ham to‘xtalib o‘tadi va uning ko‘p she’rlari borligi, devoni ham mavjudligini qayd etadi.

N. vafotiga marsiya – ta’rix yozgan Sohib Doro N.ni A. (r.a.)ga nisbat berib, madh etadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Назм ул-жавоҳир. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

S.G‘.

ALI IBN USMON JULLOBIY G‘AZNAVIY (1063–1071) – tasavvufning yirik vakillaridan biri. To‘liq nomi “N.M.”da Ali binni Usmon binni Ali Jullob G‘aznaviy shaklida keltirilgan. Tasavvufga oid zamonaviy tadqiqotlarda ko‘proq Hujviriy nisbasi b-n ataladi va shu nom b-n mashhur. Lekin N. uni bu nisba b-n atamaydi.

G‘aznada tug‘ilgan. Shayx Abulqosim Shaqoniydan ta’lim olgan. Abulfazl Hasan Hatliyga murid bo‘lgan. Islom mamlakatlarining katta qismini kezib chiqqan. Turkistondan Suriyagacha, Sind daryosidan Kaspiygacha barcha hududlarda bo‘lgan, shu jumladan, O‘zgandda ham bo‘lgani qayd etilgan. Oxiri Laxor shahrida qo‘nim topgan va shu yerda vafot etgan. Ali ibn Usmon Jullobiy G‘aznaviyning nomini mashhur qilgan asari “Kashf ul-mahjub” hisoblanadi. Mazkur kitobini u umrining oxirida, Laxorda yozgan. Garchi u boshqa asarlar ham yaratgan bo‘lsa-da ular bizga qadar yetib kelmagan, faqat nomlarigina ma’lum. Jumladan, she’riy devoni, “Kitobi fanoyu baqo”, “Bahr ul-qulub”, “Al-rioyati li huquq Alloh” singari asarlari bo‘lgani aytiladi, lekin ular topilgan emas. “Kashf ul-mahjub” muallifning yurtdoshi va do‘sti hujvirlik Abu Said Al-Hujviriyning iltimosi b-n uning savollariga javob tarzida yozilgan. Kitob Ali ibn Usmon Jullobiy G‘aznaviyning tasavvufning ko‘p masalalariga munosabatining o‘ziga xosligini ko‘rsatadi. Jumladan, u tasavvufdagi insonning Allohga yetishishi va qo‘shilishi mumkinligi haqidagi fikrni rad qilgan. Shuningdek, u inson tasavvufda qanchalik baland maqomga erishsa ham unga nisbatan shariat talablari va yaratganning hukmlari o‘z kuchini saqlab qoladi, deb hisoblagan. “Kashf ul- mahjub”ning qimmatli qismlaridan biri uning XIV bobidir. Bobda tasavvufdagi 12 ta yo‘nalish to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan. Bu, shubhasiz, tasavvuf tarixini o‘rganish nuqtayi nazaridan juda muhim.

N. “Kashf ul-mahjub”ga yuksak baho bergan va “Bu fanda (ya’ni, tasavvufda) mashhur va mo‘tabar kitobdur” deb yozgan. “N.M.”ning bir necha o‘rinlarida u “Kashf ul-mahjub” sohibi debdurkim...” deya mazkur kitobdan ko‘chirmalar keltiradi. Ali binni Usmon Jullobiy G‘aznaviyni “Olim va orif erdi” deb ta’riflaydi. Uning zikrida esa yuqorida tilga olingan kitobida bayon qilingan fikrlarini keltiradi. Jumladan, Ali Jullobiy G‘aznaviyning Shayx Abulqosim Gurgoniydan darveshga zarur xususiyatlar haqida so‘ragani va shayxning shunday javob berganini bayon qiladi: “Uch nima: biri ulki, tuz yurun tika olg‘ay; yana ulki, chin so‘z ayta va eshita olg‘ay; yana ulki, oyog‘in tuz yerga ura olg‘ay”. Shundan so‘ng darveshlar Shayxning javobini muhokama qiladilar, har biri o‘z mulohazasini bayon etadi, shu jumladan, Ali Jullobiy G‘aznaviy ham o‘z fikrini aytadi. Shayx uning so‘zlarini ma’qullaydi va “Ali rost so‘zladi. Alloh unga yordam bersin” deydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Али ибн Усман аль Худжвири. Раскрытие скрытого за навесой. Старейший персидский трактат по суфизму. – М., 2004.*

S.R., B.R., Z.R.

ALI Muhammad Xurosoniy (taxallusi; ismi: Muhammadiyev Ali) (29.10.1950, So‘g‘d viloyati) – tojik shoiri va adabiyotshunosi. Dushanbe DUni tugatib (1972), Tojikiston FA Sharqshunoslik institutida ish boshlagan va hozirgacha shu yerda faoliyat ko‘rsatadi. Fors-tojik mumtoz adabiyoti, adabiy aloqalar, matnshunoslik, adabiy tanqid yo‘nalishlarida ilmiy-tadqiqotlar olib boradi. 200 dan ziyod maqolalari, qator risolalari chop etilgan. Mumtoz adiblarning ko‘plab asarlarini nashrga tayyorlagan.

“Do‘stona munosabatlar hamda Jomiy va Navoiyning adabiy aloqalari” (1990) nomli tadqiqot yaratgan. “D.F.” yuzasidan izlanishlar olib borgan. Mumtoz fors-tojik adiblari asarlaridan namunalar asosida tartib berilgan 5 jildlik “Gulshani adab” to‘plamining 3-jildiga N.ning forsiy ijodidan namunalar tayyorlab bergan.

Ad.: *Гулшани адаб. 3-жилд. – Душанбе, 1976; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 3. – Душанбе, 2004.*

E.O.

ALI KARMOL (XV asr, Marv – Hirot) – sozanda, bastakor, musiqashunos. To‘n tikuvchi hunarmand bo‘lgani u-n xalq uni Ustodi jomabur degan. Tarrohlik (tarh chizish) san’atida ham mohir bo‘lgan. Musiqa san’atida ham yetuk bo‘lib, bu sohaning ulug‘lari b-n musobaqa qilgan. Jumladan, Ustod Shodiy asarlariga go‘zal naziralar bog‘lagan. “Naqshi Darveshi” (“Darveshiy kuyi”), “Rost” maqomidagi (“Barafshon” usulida) Jomiy g‘azali b-n aytiladigan “Peshravi Siyahchashmon” (“Qorako‘zlar peshravi”), “Amali farishta bar amali “Muxammas” (“Muxammas” usulida “Farishta amali”) va h.k. Ustod Shodiyga bag‘ishlab “Amal”, “Savt” (“Ohang”), “Peshrav”, “Naqsh”, “Kor” kabi bir qancha kuylar yaratgan. O‘z navbatida ustozi ham “Mohi hilol” (“Hilol oyi”) kuyini unga atab ijod qilgan. A.K.ning, xususan, “Hijoz”, “Isfahon”, “Busalik” kabi mashhur maqomlar yo‘lida yozgan asarlari musiqa ahli orasida shuhrat tutgan.

N. “M.N.” tazkirasining to‘rtinchi majlisida u haqda ma’lumot berib, uning ham taxallusi Udiy edi; og‘zi shaloq va tili yomon bo‘lsa ham, musiqada yaxshi tasniflari bor, deb yozadi va badiiy ijodidan namuna sifatida quyidagi matla’ni keltiradi:

Kokulatroki, ba girdi sari o‘ jon gardad,
Bar sari xud meguzarashki, pareshon gardad.

Tarj.: Uning boshi atrofida jon bo‘lgan kokilingni o‘zingga tortmaki, parishon bo‘ladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988.*

E.O.

ALI SAFIY (taxallusi; to‘liq ismi: Faxruddin Ali Safiy ibn Kamoliddin Husayn Voiz Koshifiy (1463, Sabzavor − 1532/34, Hirot) − shoir, adib. Ilk saboqni zamonasining mashhur olimi bo‘lgan Husayn Voiz Koshifiydan oladi. Keyin Hirot madrasalarida tahsilni kamolga yetkazadi. Jomiy va N. nazariga tushadi. Safiy taxallusini ham unga Jomiy tavsiya qiladi. 20 yoshida o‘z davrining asosiy ilmlarini o‘zlashtirib, zamonasining fozil kishilaridan biriga aylangan A.S. Samarqandga − Xoja Ahror Valiy mulozamatiga boradi. 1484-y. Qarshida u b-n uchrashib, 1487-y.da Samarqandda yana 8 oy shayx huzurida bo‘ladi. 1503-y.da ana shu suhbatlar asosida “Rashahot ayn ul-hayot” (“Obi hayot tomchilari”) asarini yaratadi. U Xoja Ahror hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan bo‘lsa ham, asarda Markaziy Osiyoda yashab o‘tgan yuzlab shayxlar haqida ham ma’lumot beradi.

A.S.ga shuhrat keltirgan yana bir asari “Latoyif ut-tavoyif” (“Turli toifalar haqida latifa-

lar”) bo‘lib, 24 bobdan iborat bu asarda 88 ta shoir va 20 ta badiiy san’at haqida ma’lumot berilgan. “Kashf ul-asror” (“Sirlar kashfi”) asari otasi Husayn Voizning “Asrori Qosimiy” asarining muxtasar bayoni bo‘lsa, “Anis ul-orifin” notiqlik san’atining muhim masalalari va nozik jihatlariga bag‘ishlangan. Xondamirning ma’lumot berishicha, u Nizomiyning “Layli va Majnun” dostoni ta’sirida “Mahmud va Ayoz” nomli doston ham yozgan. “Odob ul-as’hob” (“Do‘stlar odobi”), “Lug‘ati Safiy” (“Safiy lug‘ati”) asarlari ham mavjud. Umuman, u juda ko‘p asarlar yaratgan bo‘lib, ularning juda oz qismi yetib kelgan. Asosan “Rashahot” va “Latoyif” asarlari b-n mashhur bo‘lgan. She’r yozishga ham mayl ko‘rsatgan bo‘lib, ijodidan namuna sifatida “Rashahot” oxirida 94 misra qasida va 1 ruboiy, “Latoyif”da esa 28 misra qasidayi madhiya saqlanib qolgan. Hasanxoja Nisoriy uning go‘zal she’rlari tildan tilga o‘tib yurgani haqida ma’lumot berib, misol tariqasida ikki ruboiysini keltiradi. M-n:

Oyinayi nur ast ruxi yor imshab,
Ey mah, binishin dar pasi devor imshab,

Forig‘ shudaam dame zi ag‘yor imshab,
Ey subh, dame xesh nigah dor imshab.

Tarj.: Bu kecha yor yuzi nur oyinasidir, bas, ey oy, sen devor ortida o‘tir. Bu kecha g‘animlar ta’qibidan qutuldim, ey tong, bir pas otmay tursang-chi!

N. ham A.S.ning darveshtabiat, foniysifat va dardmandsheva yigitligi, Xoja Ahror suhbatiga muyassar bo‘lib, qabul sharafini topgani, irshod talqini saodati b-n sarafroz bo‘lib, Hirotga qaytgani haqida ma’lumot beradi. She’riy salohiyatini ta’riflab, namuna tarzida bir matla’sini keltiradi.

“Latoyif ut-tavoyif” asarini Hoji Sotimxon Xoja In’om Munavvar “Latofatnoma” nomi b-n tarjima qilgan. “Rashahot ayn ul-hayot” XIX asrda Xorazmda Domla Xudoybergan tomonidan o‘girilgan bo‘lib, M.Hasaniy va B.Umrzoqlar uni hozirgi alifboga tabdil qilib nashr ettirdilar.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Фахриддин Али Сафий. Латофатнома. – Т., 1996; Фахруддин Али Сафий. Рашаҳот. – Т., 2003; Мавлоно Фахриддин Али Сафий. Латойиф ут-тавойиф. – Душанбе, 1968; Ҳомидий Ҳ. Кўҳна Шарқ дарғалари. – Т., 1999; Ҳасанхожа Нисорий. Музаккири аҳбоб. – Т., 1993; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 3. – Душанбе, 2004.*

S.G‘., E.O.

ALI IBN HUSAYN (Zaynulobidin) – Hazrati Alining nevarasi, imomi Husaynning o‘g‘li (38/658 tug‘l.). Onasi (fors) Shahribonu-Salama Yazdajridin Shahriyorning qizi. 12 imomning to‘rtinchisi, ko‘p ibodatli bo‘lgani u-n “Zaynulobidin”, “Sajjod” va “Sayyid ul-sojidin” laqablarini olgan. Bu haqda N.: “Baski ibodotdin arbobi din, Otini aytib Zaynulobidin. Bobosi Ali ibn Abu Tolib singari donishmandlik va nasihatgo‘ylikda mislsiz bo‘lgan, Madina ahli Zaynulobidinni juda hurmat qilar, hatto unga bay’at qilishlarini aytishganlarida, u qabul qilmagan”, deb yozadi. Tarixchi Bal’amiy A.I.H.ning vafotini 94 hijriy/713 m. deb ko‘rsatgan.

N. asarlarida bir necha marta zikr etilgan. Jumladan, “H.A.” dostonida (55-bob) unga maxsus bob ajratilgan: *Imomi ma’sum Zaynulobidinning sag‘irayi ma’sumasining kabirushsha’n kalomi, agarchi ul sag‘iradin ma’sum erdi.*

Xatmi nubuvvatqa bo‘lub nuri ayn,
Sham’i valoyat Ali binni Husayn.
Baski ibodotidin arbobi din,
Otini aytib Zaynul-obidin..

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алиакбар Деҳхудо, Луғатнома. 1-жилд. – Теҳрон, 1998; Ғулом Сарвар ибн Ғулом Муҳаммад Лоҳурий, ШИ, инв. 8774.*

Muh.A.

ALI OHIY (XV asr) – mashhadlik shoir. “M.N.”ning birinchi majlisida uning “Xamsa” muqobalasida bir necha masnaviy yozgani aytiladi. N. shoirning “Xayol va visol” kitobidan quyidagi baytni keltiradi:

She’reki buvad zi nukta soda,
Monad hama umr yak savoda.

Tarj.: She’r nozik ma’nodan xoli bo‘lsa, butun umr bo‘yiga bir qoralik (yana bir ma’nosi – qoralama) bo‘lib qoladi.

“M.N.” tarjimonlari Faxriy Hirotiy A.O. nomini “Ali Osiy”, Qazviniy esa “Ohiy Mashhadiy” tarzida keltiradilar. Qazviniy shoirning yana bir xayyomona ruhdagi matla’sini ham beradi:

Chunon g‘ariqi mayam, soqiyoki, az gili man,
Agar gule badar oyad sharob az on bichakad.

Tarj.: Ey soqiy, men shu qadar mayga g‘arq bo‘lganmanki, agar turpog‘imdan gul unib chiqsa, undan may tomib turadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд.– Т., 2011.*

S.G‘.

ALI SHUNQOR (XV asr 2-yarmi, Hirot) – musiqashunos, bastakor. N. va Darveshali Changiylarning ta’kidlashlaricha, u noyob iste’dod sohiblaridan bo‘lib, bir necha kuylar yaratgan. Bir turkum kuylarini Hirot malikasi To‘tibegimga bag‘ishlagan. U “Husayniy”, “Iroq”, “Dugoh” maqomlarining “Turkzarb”, “Zarbulfath” vaznlarida ijod qilgan. Tab’i nazmi ham bo‘lib, g‘azallar yozgan va devon tuzgan. O‘z g‘azallariga o‘zi kuy bastalab, o‘zi kuylagan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1-жилд. – Т., 2000; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988.*

E.O.

ALIYEV Gazanfar Yusuf O‘g‘li (1930–1984, Ganja) – f.f. d-ri, prof., sharqshunos. Hind, fors-tojik, turkman, o‘zbek xalqlari adabiyoti b-n shug‘ullangan. Y.E.Bertels rahbarligida “Сравнительное изучение поэмы Низами Гянджеви “Хосров и Ширин” и одноименная поэма Амир Хосрова Дехлеви” (1957) mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Keyinchalik mazkur tadqiqotni to‘ldirib, “Sharq xalqlari adabiyotida “Xisrav va Shirin” afsonasi” (1960, Moskva) nomi b-n nashr etgan. A.G. ustozi Y.E.Bertels ilmiy tadqiqotlarini o‘z ichiga olgan 6 tomli “Tanlangan asarlar”ining (1960) asosiy tuzuvchilaridan biri, muharrir va ilmiy izohlar muallifidir. Olimning “Sharq xalqlari adabiyotida Nizomiy syujeti va mavzulari” (1985) kitobida qariyb 700 yillik davr mobaynida ijod etilgan “Xamsa” syujetlaridagi asarlar qamrab olingan. Tibetdan to Kichik Osiyogacha bo‘lgan hududdagi 287 ta muallif hayoti va ijodi haqida ma’lumot berilgan. Sharq adabiyotida an’anaviy syujetlarning ishlanishi va mavzuning olimlar tomonidan o‘rganilishi yoritilgan. “Xisrav va Shirin” nomidagi 98, “Layli va Majnun” – 123, “Haft paykar” – 55, “Iskandarnoma” – 34, “Maxzan ul-asror” mavzusi va syujetidagi 99 ta asarni keltiradi. N. “X.”siga alohida to‘xtaladi (156 – 161). Umar Boqiy (XVII–XVIII) yaratgan N.ning “F.Sh.”, “L.M.” dostonlari nasriy bayonlariga ta’rif beradi.

Ad.: *Алиев Г. Ю. Легенда о Хосрове и Ширин в литературах народов Востока. – М., 1960; Алиев Г.Ю. Темы и сюжеты Низами в литературах народов Востока. – М.,1985; Багиров А.М. Выдающийся востоковед Газанфар Алиев // Культура и цивилизация. 2017. Том 7. № 5А.*

E.O., S.G‘., Sh.R.

ALIXOJA Ibn Sayyid Ahmadjon Turkistoniy (XIX asr o‘rtalari) – Turkistonlik xattot. A. o‘z davrida nasx va nasta’liq xatida mohir bo‘lgan. U N.ning “M.Q.” va “X.”sini oddiy nas-

ta’liq xatida, Qo‘qon varag‘i, 1968/1851–51-y. Marg‘ilon shahrida, ko‘chirgan.

Ad.: *Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. – Т., 1991.*

Muh.A.

ALISHER – N.ning ota-onasi qo‘ygan ism. Dunyoning go‘zalligi, zavq-shavqi inson b-n. Odamsiz olam – tashlandiq bir maskan. Unda na fayz, na quvonch va surur bo‘ladi. Shuning u-n qanaqa shart-sharoitda yashab, qanday qiyinchiliklar girdobida voyaga yetmasin, insonning tug‘ilishi baribir quvonchli hodisa. Hatto yo‘qsillik yoki o‘ksiklik qo‘li b-n vujudi yo‘rgaklanganda ham. Donishmand shoir G‘.G‘ulom:

Tug‘ilgan kunimni eslay olmayman,
Tashakkur aytilsa arziguli tong.

deganda naqadar haq edi.

Endigina dunyoga kelgan chaqaloq yig‘isi nimadan xabar beradi? Baxtdanmi, baxtsizlikdanmi, mardlikdanmi yo jasoratdanmi, qo‘rqoqlik yoxud xiyonatdanmi – buni hech kim bilmaydi. Qismatida uning nima bitilgan: el-yurt qayg‘usida kuyib-yonib yashashmi yoki nafs va shayton qo‘g‘irchog‘iga aylanib, o‘z qavmiga kulfat keltirishmi – buni ham hech kimsa aniq bashorat etolmaydi. Ammo bir narsa haqiqat: eng nodon kimsa ham bir dono, oqil farzand ko‘rishni orzu qiladi. Hech qaysi kazzob va muttaham bolam o‘zimga o‘xshasin, mening izimni bossin demaydi. Aql va tafakkur, diyonat va to‘g‘rilikning bezavolligi ham ana shunda. Haqiqat nuri shu u-n so‘nmaydi. Rostlik shu u-n yengilmaydi.

Nom tanlash, farzandlariga ism qo‘yish – bu har bir millatning yuksak murod-maqsadi, tarixga munosabati, kelajakka ne umid ila qarashiga daxldor ishdir. O‘zbeklar orasida Muhammad, Jaloliddin, Temur, Bobur kabi nomlar nega keng tarqalgan? Nega bizda Alisher eng aziz, eng sevimli ismlardan? Chunki har bir ota-ona farzandining ana shu buyuk zotlarga o‘xshashi va ular hayotidan ibrat olishini istaydi. Orzuga esa ayb yo‘q...

Biz A. deganda ham, N. deganimizda ham yurakda faxr-iftixor tuyg‘usi uyg‘onadi. Biz N. tug‘ilgan kunni xalqimiz madaniy-ma’naviy hayotidagi unutilmas sana sifatida qadrlaymiz va nishonlaymiz. Chunki boshqacha bo‘lishi mumkin ham emas.

Ma’lumki, Alisher hijriy yil hisobi b-n o‘n yettinchi ramazon oyi 844 – tovuq yili – milodiy hisob b-n 1441-y. 9-fevralda Hirotning Bog‘i Davlatxona degan mavzesida tavallud topgan. A. tug‘ilgan xonadon Hirotning eng obro‘li, aslzoda va ma’rifatli oilalaridan edi. Bu oilaga Alisher olib kelgan quvonch, A. b-n birga tug‘ilgan orzudan kelajakda ilm, irfon va adabiyot olamida qanday kashfiyot odamzod aql-idrokini hayratga solguvchi qandoq mo‘jizalar paydo bo‘lishini hali hech kim xayolga ham keltirmasdi. A. tug‘ilgan kun. Bu – Sharqda xuddi Nizomiy, Mavlono Rumiy, hazrat Abdurahmon Jomiyga o‘xshab va betimsol bir daho ko‘z ochgan qutlug‘ kun. Eng xosiyatli kun. A. tug‘ilgan kun. Bu – xuddi Dante, Shekspir, Gyote, Pushkin va Tolstoy boboniki kabi bashariyat xotirasida hech o‘chmas, insoniyat mavjud ekan, qayta-qayta eslanaveradigan sharafli sana.

Alisher tug‘ilgan kun chin ma’nosi ila she’riyat va tafakkur bayrami. Shu kuni katta-yu kichik – bog‘cha bolasidan boshlab, keksalarimizgacha – hamma-hamma n.xonlik qiladi. Ming-minglab yurtdoshlarimiz tilida N.ning ismi sharifi, durdona fikrlari, shohbaytlari takrorlanadi. Qani edi, butun yil mobaynida shunday bo‘lsa. N.ni tushunadigan, sevadigan, hayotni, zamon va kelajakni mutafakkir bobomiz orzu etganday mushohada etishga qodir o‘zbekning soni yanada ortsa. Ijodkorlarimiz olimimiz N.ga vorislikni chuqur bilsa... o‘zligini tanishda ham, millat tuyg‘usi ravnaqida ham o‘zbek hech payt hech qaysi xalqdan kamlik sezmasdi. Chunki N. asarlardagi teran so‘zlar, eng avvalo, nafs-u havo, kibr-u riyo otashini so‘ndiradi. N.ni o‘qish kishini hech tengi yo‘q maqom – ishq va odamiylik maqomiga yuksalishga ilhomlantiradi. Bu esa eng asosiysidir.

Ad: *Ганиева С. Алишер Навоий. – Т., 1968; Қаюмов А. Алишер Навоий. – Т., 1991.*

I.H.

“АЛИШЕР НАВОИ” – N.ning 500 yillik yubileyi munosabati b-n 1940-y.da tayyorlanib, Ikkinchi jahon urushi boshlanib qolgani tufayli kechikib, 1946-y.da nashr etilgan maqolalar to‘plami. Undan N. davri, birlamchi manbalar ma’lumotlari asosidagi u mansub madaniy va adabiy muhit manzaralari tahlili, shoir hal qiluvchi rol o‘ynagan Hirotdagi adabiy davralar tadqiqiga bag‘ishlangan maqolalar o‘rin olgan.

“A.N.” Y.Y.Yakubovskiyning N. yubiley qo‘mitasi I majlisi (1940, Toshkent)da qilgan “Alisher Navoiy davri ijtimoiy va madaniy hayotining xususiyatlari” degan mavzudagi ma’ruzasi b-n ochiladi. Unda temuriylar davridan boshlab Markaziy Osiyo xalqlari tarixi bosqichlari, xalq ahvoli, davr, davlatdagi nizolar haqida fikr yuritiladi. N.ning XV asr madaniy hayotidagi o‘rni, ilm-fan, adabiyot-san’atning rivojidagi o‘rni ko‘rsatib beriladi. Maqola qo‘lyozma manba va nodir nashrlar asosida yozilgan.

I.Y.Krachkovskiyning “Arab adabiyotida Majnun va Layli haqidagi qissalarning qadimgi tarixi” maqolasida N. “L.M.” dostonining mazmun tarixi kuzatiladi. VII asrga mansub Vavilon mix yozuvlaridan, IX asr Ibn Qutayba (vaf. 889) ning “Kitob ush-she’r”, Abul Faraj Isfahoniy (vaf. 967) “Kitob ul-og‘oniy” va boshqa asarlarida Majnun va Layli haqida ma’lumotlar keltiriladi. Keyingi turkum asarlarida qissa mazmuni qayta o‘zgargani qayd qilinadi.

Y.E.Bertels “Navoiy va Nizomiy” maqolasi markaziga 1) N.ning Nizomiy haqidagi fikrlari, 2) har ikki shoir dostonlarini muqoyasa qilib, umumiy va farqli jihatlarini yoritish masalalarini qo‘yadi.

Muallif N.ning “F.Sh.” va “S.S.” dostonlarini Nizomiy dostonlari b-n izchil muqoyasa qilib, N. Nizomiydan mohiyatan farqlanuvchi asarlar yaratgani, u o‘z e’tiroficha, salaflaridan o‘rgangan, lekin lozim bo‘lganda ularning qarashlariga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondashganini ta’kidlaydi.

A.K.Borovkovning “Alisher Navoiy o‘zbek adabiy tilining asoschisi” degan maqolasida forsiy va turkiy tillarining N. talqinidagi mavqeyi, adabiy tilning shakllanishida N.ning roli, N. tilining fonetik, morfologik xususiyatlari va boshqa masalalar, shuningdek, “turk” tili, “chig‘atoy tili” terminlariga N. tilining sheva asoslari tadqiq etiladi.

“A.N.”dagi N.Boldirevning “Navoiy zamondoshlarining hikoyalarida” degan maqolasi Zayniddin Mahmud Vosifiyning “Badoye’ ul-vaqoye” nomli yodnoma asari tarkibidagi Vosifiyning o‘zi shohid bo‘lgan N.ning yaqin musohiblari, jumladan, Sohib Doro tilidan naql qilingan hikoyatlar mazmuni, ularning N.dek ulkan siymo hayoti, muhiti va u yashagan hamda ijod qilgan sharoitni yoritishdagi ahamiyati ochib beriladi. Maqola muallifi bu hikoyatlardagi asos e’tibori b-n ijobiy bo‘yoqlarda talqin qilingan N. tabiati, muomalasi qatorida ba’zi nozikmijozlik, gina saqlash kabi xususiyatlar ham ko‘zga tashlanishi, ularning boshqa ma’lumotlarga ham ishonch ko‘zi b-n qarashni taqozo qilishini ta’kidlab o‘tadi. Bu xususda aytish kerakki, Bobur ham N. tabiatidagi shu kabi chizgilarning ba’zilari haqida yozgan.

N.Boldirev Vosifiydan N. b-n bog‘liq 21 hikoyatni keltiradi, ular mazmunidagi ruscha tarjimasini beradi, ba’zi yerlarni qisqacha bayon qilib beradi. Maqola bu hikoyatlarning N. shaxsiyatini o‘rganishda mustasno ahamiyati borligi b-n xulosalanadi.

A.A.Semyonov N. davridagi “Hirot bezakli qo‘lyozmalari va ularning ijodkorlari” maqolasida kitobat san’ati, uning ommaviy mehnat samarasi ekani, qog‘oz tayyorlash san’ati, unga rang berish, siyoh, qalam, mistar hozirlash, xattotlik san’ati, xat turlari, lavvohlik, musavvirlik, naqqoshlik sahhoflik san’atlari haqida qo‘lyozma manbalar asosida fikr yuritiladi hamda Hirot maktabida badiiy bezakli qo‘lyozmalar ta’riflanadi.

“XV asr Hirotining tarixiy topografiyasi”ga oid ma’lumotlar A.M.Belinitskiy maqolasida beriladi. Hirotning ichidagi va shahar tashqarisidagi turli-tuman bino, inshootlar, bog‘-rog‘lar, ulardan ba’zilarining tarixi, qurilishi, bezaklari haqida so‘z yuritiladi. Muallif N.ning ba’zi binolarni bunyod etishda, ba’zilarini ta’mir qilishda, Hirot va uning atrofi ko‘ngil ochuvchi bog‘lar b-n orasta bo‘lishdagi rolini ko‘rsatib beradi.

“A.N.”ning oxirgi maqolasi S.L.Volinning Leningrad fondlaridagi N. qo‘lyozmalari tavsifiga bag‘ishlangan. Unda Rossiya FA Sharqshunoslik instituti Leningrad bo‘limi, Leningrad davlat universiteti Sharq fakulteti fondlarida saqlanayotgan 124 ta N. asarlari tavsif etiladi.

“A.N.” to‘plami N. davri madaniy va adabiy hayoti manzarasini yorqin tasvirlaydi. XV asr Hirot adabiy muhiti, N. atrofidagi shoir, adib, olim, xattot va san’atkorlar haqida ma’lumot beradi. N. asarlarining manba va ma’hazlari, boshqa asarlar b-n qiyoslash masalalariga oid qarashlar o‘rtaga tashlanadi. To‘plam n.shunoslikning muayyan yutug‘i bo‘lib qoldi.

To‘plam hozirgacha o‘zining ilmiy qimmatini saqlab kelayapti. U A.K.Borovkov tahriri ostida V.V.Struve mas’ul muharrirligida chop etilgan

Ad.: *Алишер Навои (Сб. стат.). М. – Л., 1946.*

E.O.

“ALISHER NAVOIY” – Prof. S.G‘aniyevaning shu nomdagi kitobi. Unda N.ning tarjimayi holi, davlat arbobi sifatidagi faoliyati, ijodiyoti ommabop uslubda bayon etilgan. Kitob N.ning hayoti va ijtimoiy faoliyati, N. lirikasi, N. dostonlari, N.ning nasriy asarlari haqidagi tadqiq va tahlillar o‘rin olgan 4 bo‘limdan tashkil topgan. Mazkur tadqiqot boshqa shu kabi ishlardan bevosita N. asarlariga alohida urg‘u berilgani b-n e’tiborga molikdir. Jumladan, “Navoiy lirikasi” qismida “X.M.” tarkibiga kirgan lirik asarlarning janr xususiyatlari, mavzu ko‘lami va ularining muayyan jihatlari tahlil etilgan bo‘lsa, “Navoiy dostonlari” bo‘limida “X.” tarkibidagi dostonlar va ularning o‘zbek adadbiyoti taraqqiyotida tutgan mavqeyi oydinlashtirilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик. 6-8-жилдлар. – Т., 2011; Ғаниева С. Алишер Навоий. – Т., 1968.*

M.A.

“ALISHER NAVOIY BOG‘DA” – Temuriylar Uyg‘onish davrining mashhur rassomi Kamoliddin Behzod mo‘yqalamiga mansub miniatyura rasm. Sharq rang-tasvir san’atiga ulug‘ N. siymosini olib kirganligi b-n qimmatli. Ushbu miniatyura bizgacha yetib kelmagan, ammo adib Zayniddin Mahmud Vosifiyning “Badoye’ ul-vaqoye” asari “Pahlavon Muhammad Abusa’id va Sulton Husayn Mirzoning boshqa kurashchilari fazilatlari va kamoloti zikrida” nomli faslida “Surat ahvoli shunday edi” tarzida ishonchli ma’lumot bitilgan. Chunonchi: “Mashhurdurki, mazkur Ustod Behzod bir tasvirli lavhani ulug‘ amir Alisherning jannat tartibli, osmon martabali majlisiga keltirdi. Surat ahvoli shunday edi: “gunogun daraxtlar bi-n o‘ralgan bir orasta bog‘. Daraxt butoqlarida rang-barang tovlanib turuvchi xushsuvrat qushlar. Har tarafda ariqlar ravon va ochilgan zangori gul butalari. Mirning marg‘ub suvrati shunday chekilganki, bir asoni tutgan holda turibdilar. Zar to‘la tavaqlar sochqi rasmi uchun oldilariga qo‘yilgan”.

Miniatyurani Behzodning o‘zi N. davrasida kechgan adabiy majlislardan biriga keltirgani, surat esa ulug‘ shoirga juda ma’qul kelib, “ahsan, al-ahsan!” deb xushvaqt bo‘lib badiha tarzda bayt o‘qigan, rassomning mehnatini yuksak qadrlab, unga egar-jabduqli ot, qimmatbaho sarupolar hadya qilgan va boshidan sochqi sochtirgan. Hikoyatda N.ning majlis ahliga qilgan murojaati sabab zamondoshlaridan Nizomiddin Fasihiy, Mavlono Sohibdoro, Mavlono Burhoniddin, Muhammad Badaxshiylarning surat to‘g‘risida Sharq xalqlariga xos nozik did b-n aytgan fikrlari b-n bog‘liq qiziqarli lavha bayon qilinishi ham muhim ma’lumot hisoblanadi. Mazkur asar N. vafotidan keyin yakunlangani u-n hikoyatning xotima qismida Vosifiy o‘zining chuqur qayg‘usini ifodalab bitgan baytni tamsil qilib keltirgan.

“Alisher Navoiy bog‘da” miniatyurasi N. ning hayoti va ijodini tushunishga, tahlil qilishga yordam beradi. Miniatyuradagi bog‘ manzarasi N.ning bunyodkorlik ishlariga, sochqi sochish tasviri esa uning ijod ahliga hamda aql va qo‘l ixtirolariga ko‘rsatgan himmatiga ham ishoradir.

Ad.: *Зайниддин Маҳмуд Восифий. Бадоеъ ул-вақоеъ; Навоий замондошлари хотирасида. (Тузувчи Б.Аҳмедов). – Т., 1985; Ражабова Б. "Алишер Навоий боғда" миниатюраси ҳақида. Ўзекистон адабиёти ва санъати газетаси. 2021, 5 феврал.*

B.R.

"ALISHER NAVOIYNING ADABIY MAHORATI MASALALARI" – N. tavalludining 550 yilligi munosabati b-n N. nomidagi Adabiyot instituti olimlari tomonidan 1991-y.da tayyorlanib, 1993-y.da chop etilgan maqolalar to‘plami. Unda ulug‘ shoirning adabiy an’analardan foydalanish, yangi syujetlarni adabiyotga olib kirish va mavjud syujetlarni qayta ishlashdagi, umrboqiy qahramonlar yaratish, ularning ichki olamini ochish, g‘azalchilikdagi, so‘z qo‘llashdagi mahorati qirralarini tadqiq etishga bag‘ishlangan maqolalar berilgan. Bu maqolalar yangilanish kurtaklarining mavjudligi, mumtoz merosga xolis munosabatning shakllanayotgani b-n ajralib turadi. A.Hayitmetovning "Alisher Navoiy ijodining manbalari haqida", S.G‘aniyeva va H.Ne’matovlarning "Alisher Navoiy g‘azaliyotida tasavvuf ohanglari", A.Habibullayevning "Navoiy didaktik qarashlarining manbalariga doir", B.Valixo‘jayevning "Arba’in hadis" va uning tarjimalari" kabi N. ijodiga diniy va tasavvufiy jihatdan yondashib yozilgan maqolalar buning yorqin dalilidir.

Ad.: *Алишер Навоийнинг адабий маҳорати масалалари (Мақолалар тўплами). – Т., 1993.*

E.O.

ALISHER NAVOIY ASARLARI UCHUN TUZILGAN KATALOG – N. tavalludining 575 yilligi arafasida tarix fanlari doktori I.V.Zaysev tomonidan "Рукописи и литографированные издания произведений Алишера Навои в московских собраниях" nomli katalog-albom tuzilgan. Loyihalovchi I.E.Krugovix, tuzuvchi va izohlar muallifi I.V.Zaysev, dizayner I.I.Melanin. Katalogda N. asarlarining Moskva davlat kutubxonalari, universitet, muzeylarida saqlanayotgan XVIII–XIX asrga oid 14 ta qo‘lyozma, XIX asr oxiri XX asr boshlariga doir 12 ta toshbosma nusxasi sahifalaridan namunalar berilgan. Katalog avvalida I.E.Krugovixning kirish so‘zi, A.B.Kudelinning "Alisher Navoiy tavalludining 575 yilligi munosabati bilan" (hayoti va ijodini o‘rganish istiqbollari va natijalar) (К 575-летию со дня рождения Алишера Навои (итоги и перспективы изучения жизни и творчества)",

A.Qayumov, D.Azizova "Buyuk shoiri odamlar qalbida" (Великий поэт в сердсах людей), I.V.Zaysev "Alisher Navoiyning Moskvadagi qo‘lyozma va toshbosma nashrlari" (Рукописи и литографированные издания Алишера Навои в Москве) maqolalari berilgan. N.ning Mahmud Muzahhib tomonidan ishlangan surati, Kamoliddin Behzod va keyingi davr musavvirlari tomonidan ishlangan suratlar hamda g‘azallardan namunalar o‘zbek va rus tillarida katalog sahifalarida berib borilgan. Katalogda "X." va "X.M." devonining mavjud qo‘lyozma va toshbosma nusxalari titul sahifalari, badiiy ishlov berilgan kolofon qismidan suratlar qo‘yilgan. So‘ngra Y.E.Bertels tahriri ostida N.F.Lebedev tarjimasidagi N. g‘azallarining rus tilidagi tarjimasi kitobdan asli ilova qilingan. Katalog yana kitobxon u-n lozim bo‘lgan ko‘rsatkichlar, izohlar b-n ta’minlangan. I.V.Zaysev bu mehnati b-n N. asarlarining Moskva shahridagi mavjud manbalarini ilmiy jamoatchilikka ma’lum qilishga hissa qo‘shdi.

Ad.: *Рукописи и литографированные издания произведений Алишера Навои в московских собраниях. Каталог. / Составитель и автор описания рукописей и литографий – доктор исторических наук И.В. Зайцев. М.: Центр книги Рудомино, 2016.*

Q.E., B.R., Sh.R.

"ALISHER NAVOIYNING IJODIY MEROSI VA UNING JAHONSHUMUL AHAMIYATI" – ulug‘ shoir tavalludining 560 yilligi munosabati b-n 2001-y. 24-avgustda Navoiy

shahrida bo‘lib o‘tgan ilmiy-nazariy anjuman tezislari asosida tartib berilgan to‘plam. Ular orasida mamlakatimizning turli ilmiy markazlarida faoliyat ko‘rsatayotgan n.shunoslikning poydevorini qo‘ygan ustoz n.shunoslardan tortib, shoir ijodini o‘rganishga endi qo‘l urgan yosh tadqiqotchilarning ishlarigacha bor. Ularda, asosan, N. hayoti va ijodini mustaqillik tufayli qaror topgan yangicha qarashlar asosida tadqiq etishga harakat qilingan.

Ad.: *Алишер Навоий ижодий мероси ва унинг жаҳоншумул аҳамияти (Илмий-назарий анжуман маърузалари тезислари). Т.–Н., 2001.*

H.A.

“ALISHER NAVOIY IJODIY VA MA’NAVIY MEROSINING OLAMSHUMUL AHAMIYATI” – ulug‘ shoir tavalludining 570 yilligi munosabati b-n 2011-y. 28–29-sentyabrda Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallarini o‘z ichiga olgan to‘plam. U “Navoiyning adabiy merosi”, “Navoiyning ilmiy merosi”, “Tilshunoslik va san’at” kabi 3 qismdan tashkil topgan bo‘lib, mamlakatimizdagi va chet ellik n.shunoslar hamda yosh tadqiqotchilarning N. hayoti, ijodi, mahorati, asarlarining tarjimalari, adabiy ta’sir masalalari, ijodining din, tasavvuf, tarix, til, falsafa, madaniyat, san’at, musiqa, turli fanlar b-n munosabatlariga bag‘ishlangan ma’ruzalar matni asosida tartib berilgan.

Ad.: *Алишер ижодий ва маънавий меросининг оламшумул аҳамияти (халқаро илмий-назарий анжуман материаллари). – Т., 2011.*

E.O.

“ALISHER NAVOIY IJODI VA SHARQ ADABIYOTI” – Toshkent davlat Sharqshunoslik institutida ulug‘ shoir tavalludining 570 yilligi munosabati b-n 2011-y. 10-fevralda o‘tkazilgan “Alisher Navoiy ijodi va Sharq adabiyoti” mavzusidagi ilmiy anjuman materiallari asosida tartib berilgan to‘plam. Kitobdan N. ijodi va uning Sharq adabiyoti b-n munosabatlariga bag‘ishlangan maqolalar o‘rin olgan. To‘plam A.N. va Sharq adabiyoti mavzusini o‘rganishda o‘ziga xos qadam hisoblanadi.

Ad.: *Алишер Навоий ижоди ва Шарқ адабиёти (мақолалар тўплами). – Т., 2011.*

M.A.

“ALISHER NAVOIY” – E.Ochilovning N. hayoti, faoliyati va ijodini umumiy yo‘sinda yaxlit yoritishga bag‘ishlangan risolasi (2011; 2013; 2015). Risolada bu favqulodda iste’dod sohibining ibratli hayoti, serqirra faoliyati, davlat va jamoat arbobi hamda ma’naviyat va ma’rifat homiysi, adolatli amaldor va saxovatli inson siymosida amalga oshirgan xayrli va ezgu ishlari, boy va rang-barang adabiy-ilmiy merosi, ijodining asosiy yo‘nalishlari, janriy tarkibi va mavzu doirasi, o‘lmas g‘oya va qarashlari, asarlarining badiiy barkamolligi sirlari va shoirlik mahoratining ayrim qirralari to‘g‘risida ilmiy-ommabop usulda hikoya qilingan. Betakror so‘z san’atkorining faxriya yo‘sinida o‘z ijodining ahamiyati-yu shuhratining abadiyligi xususida bildirgan fikrlari hamda taniqli olim-u adiblarning N. ta’rifida bitgan so‘zlari keltirilgan. Shoir haqidagi ibratli rivoyatlar-u N.ning mashhur hikmatlaridan namunalar berilgan.

Ad.: *Очилов Э. Алишер Навоий. – Т., 2011; 2013; 2015.*

S.O‘.

“ALISHER NAVOIY ASARLARI LUG‘ATI” – 2013-y.da akad. E.Fozilov tomonidan tayyorlangan va “Niso Poligraf” nashriyotida chop etilgan lug‘at. Lug‘atni tuzishda tanqidiy va ommaviy nashrlardan, mamlakatimiz va xorijdagi nodir qo‘lyozmalardan, maxsus tadqiqotlardan foydalanilgan. Lug‘atda har bir so‘z alohida bosh so‘z – maqola sifatida, alfavit tartibida berilgan. So‘zning grammatik formalari bir so‘z

sifatida qaralgan. Ravishdosh va sifatdoshlardan boshqa so‘z turkum sifatida qo‘llanganlari lug‘atga kiritilgan. Bir so‘zning fonetik variantlari bir lug‘at maqolasida berilgan. Qo‘shma so‘zlar bir bosh sifatida berilmay o‘z tarkibidagi komponentlardan biri maqolasi ichida, asosan, birinchi komponent asosida keltirilgan. Bosh so‘z yolg‘iz ishlatilmasdan, birikma tarkibidagina qo‘llangan bo‘lsa, bosh so‘zdan keyin o‘sha so‘zning birikmadagi holati sharhlangan, ayrim o‘rinlarda bosh so‘z izohlari, so‘ngra birikma sharhlangan. Sinonim so‘zlar alifbo tartibida o‘z o‘rnida bosh so‘z sifatida berilib, mustaqil ravishda izohlangan. Lug‘at maqolasi quyidagi elementlarni tashkil topgan: bosh so‘z transliteratsiyasi, so‘zning arabcha yozuvi, bosh so‘zning ma’no va ma’nolari izohi, bosh so‘zning ma’nolarini tasdiqlovchi qo‘lyozma va nashrlardan olingan misollar, qo‘lyozmaning sahifa va qatorlari, nashr qilingan manbalarning varaqlari, izofa, idiomatik, frazeologik, turg‘un birikmalar, qo‘shma ot va fe’llar sharhi va illyustrativ material.

Lug‘at N. asarlari bo‘yicha ilgari chop etilgan lug‘atlardan mukammalligi va to‘liqligi b-n ajralib turadi. 1972-y.da chop etilgan “Alisher Navoiy asarlari lug‘ati”, 1983–1985-yy.da chop etilgan “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”dagi A-Z harflari b-n boshlanuvchi so‘zlar misolida buni ko‘rib chiqish mumkin.

“Alisher Navoiy asarlari lug‘ati”da A-Z harflari bo‘yicha 3124 ta bosh so‘z, 303 ta qo‘shma so‘z, 443 ta izofa, 338 ta turg‘un birikma, 544 ta tasdiqlovchi iqtibos berilgan, “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”da 3833 ta bosh so‘z, 1041 ta qo‘shma so‘z, 1158 ta izofa, 832 ta turg‘un so‘z birikmasi, 10658 ta tasdiqlovchi iqtibos berilgan bo‘lsa, E.Fozilovning “Alisher Navoiy asarlari lug‘ati”ning birinchi jildidagi A-Z harflari bo‘yicha 5377 ta bosh so‘z, 1635 ta qo‘shma so‘z, 2964 ta izofa, 838 ta turg‘un so‘z birikmasi, 16526 ta tasdiqlovchi ko‘chirma berilgan.

“Alisher Navoiy asarlari lug‘ati”da oldin chop etilgan lug‘atlardagi izohlar qayta ko‘rib chiqilgan, kerakli tuzatishlar, tahlillar kiritilgan, xato ketgan so‘zlar tuzatilgan, yangi xorijiy ilmiy nashrlardan to‘liq foydalanish orqali bosh so‘z – maqolalar adadi ko‘paytirilgan, qo‘shma so‘zlar, frazeologik va turg‘un birikmalar adadi har taraflama qamrab olingan.

Ad.: *Фозилов Э. Алишер Навоий асарлари луғати. 1-том, – Т., 2013.*

Nish.H.

“ALISHER NAVOIY ASARLARINI KO‘CHIRGAN XATTOTLAR” – taniqli manbashunos olim M.Hakimov qalamiga mansub risola (1991). Unda XV asrning 2-yarmidan XX asr boshlariga qadar N. asarlarini kitobat qilgan xattotlar haqida ma’lumot beriladi. Bu davrda ko‘chirilgan asarlarning qariyb yarmini shoir asarlari nusxalari tashkil etadi. Hozirgi vaqtda N. asarlarining ming jilddan ziyod qo‘lyozma nusxasi – T., Sankt-Petrburg, Boku, Dushanbe, Tbilisi, Yerevan, Ashxobod, Bishkek, Qozon, Samarqand, Buxoro, Qo‘qon, Xiva va chet ellardagi qo‘lyozma xazinalari va kutubxonalarda saqlanadi. Shoir asarlarini ko‘chirgan 300 dan ziyod kotibning nomi ma’lum. Risolada kotiblar ro‘yxati XV asrdan boshlab xronologik tartibda berilgan. Kotib hayoti va faoliyati haqida ma’lumotlar mavjud bo‘lsa, ular qisqacha bayon qilingan, ma’lumot saqlanmagan bo‘lsa, u ko‘chirgan qo‘lyozmani ko‘rsatish b-n kifoyalanilgan.

Ad.: *Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. – Т., 1991.*

E.O.

“ALISHER NAVOIY ASARLARI TILINING IZOHLI LUG‘ATI” – akad. E.Fozilov rahbarligidagi O‘zR FA Tarixiy leksikologiya va leksikografiya bo‘limi tomonidan tayyorlangan hamda 1982-85-yy.da “Fan” nashriyotida to‘rt tomda chop etilgan lug‘at. “Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati” 25 mingdan ortiq so‘zni qamrab olgan. Unda N. asarlarida qayd etilgan o‘zbekcha, arabcha, forscha va boshqa tillardan o‘zlashtirilgan so‘zlar qamrab olingan. Lug‘atning 1-jildi (556-bet)da A, B, V, G, D, E, Yo,

J, Z harflari so‘zliklari, 2-jildi (643-bet)da I, Y, K, L, M, N, O, P, R harflari so‘zliklari, 3-jildi (623-bet)da S, T, U, F, X, Ch, Sh, E, Yu, Ya, O‘, 4-jildi (635-bet)da Q, G‘, H harflari so‘zliklari, I-III tomlarga kirmay qolgan so‘zlar, arabiy birikma va iboralarning izohi hamda talqini, N. asarlarida uchragan kishilar nomlari, N. asarlarida uchragan geografik, astronomik va boshqa nomlar, N. asarlarida uchragan asarlar nomlari, lug‘atning indeksi (o‘zbekcha-arabcha), hamda “Xamsa bo halli lug‘at” (Xamsa hoshiyasiga tuzilgan lug‘at) berilgan.

Izohli lug‘atda so‘zlar, ko‘p ma’noli so‘zlar, ular ishtirokida hosil bo‘lgan birikmalar qamrab olingan, ularga N. asarlaridan dalillar keltirilgan. Bir so‘zning turli fonetik variantlari bir lug‘at maqolasida berilgan hamda ulardan eng ko‘p qo‘llaniladigani birinchi o‘ringa qo‘yilgan. Omonim so‘zlarning har biri alohida bosh so‘z tarzida berilgan. “A.N.A.T.I.L.” buyuk allomaning turkiy asarlari ma’lumotlari asosida mustaqillikdan oldin yaratilgan mukammal lug‘atdir.

Ad.: *Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. I-IV том. – Т., 1983 – 1985.*

Nish.H.

“ALISHER NAVOIY VA FORS-TOJIK ADIBLARI” – taniqli adabiyotshunos Ergashali Shodiyeving N. ijodi misolida o‘zbek va fors-tojik adabiy aloqalari tarixiga bag‘ishlangan qo‘llanmasi (1989). U 4 bobdan iborat bo‘lib, “Alisher Navoiy va adabiy aloqalar” deb nomlangan 1-bobda Rudakiy va Firdavsiydan tortib to N.gacha va N. davri adabiy aloqalari yoritiladi. “Alisher Navoiy va uning salaflari” deb atalgan 2-bob N.ning buyuk forsiy salaflari, xususan, Firdavsiy, Sa’diy, Hofiz kabi buyuk so‘z san’atkorlariga munosabati, ularning shoirning ijodiy yuksalishida tutgan o‘rni masalalari tadqiqiga bag‘ishlangan. “Alisher Navoiy va uning zamondoshlari” nomli 3-bobda N.ning Jomiy, Osafiy, Binoiy, Vosifiy, Hotifiy kabi zamondoshlari b-n o‘zaro aloqalari va hamkorligi o‘rganiladi. “Navoiy va keyingi asr shoirlari” degan 4-bobda N.ning keyingi asrlar, xususan, XIX asrdagi izdoshlari to‘g‘risida fikr yuritiladi. Chunki olimning xulosasiga ko‘ra, ayni asrning 1-yarmiga kelib, bu ikki adabiyot o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar shunchalik yuksak pog‘onaga ko‘tarildiki, Junaydullo Hoziq, Nozil Xo‘jandiy, Ma’dan, Maxmur, Gulxaniy, Muxlis, Fano Istaravshaniy, Qori Rahmatullo Vozeh, Jazbiy kabi shoirlar ijodini faqat bir adabiyot b-n bog‘lash mumkin bo‘lmay qoldi. “Ular o‘z asarlarini ikki tilda yaratganlar, ikki xalq madaniyati va adabiyoti taraqqiyotiga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shganlar, ikkala xalqqa bab-barobar xizmat qilganlar”.

Ad.: *Шодиев Э. Алишер Навоий ва форстожик адиблари. – Т., 1989.*

E.O.

ALISHER NAVOIY VA UYG‘UR ADABIYOTI – Uyg‘ur adabiyoti o‘z tarixi davomida jahon adabiyoti b-n bir qatorda rivojlangan bo‘lib, bir tomondan, qo‘shni turkiy xalqlarning adabiyotlari b-n, ikkinchi tomondan esa, fors-tojik, arab hamda xitoy adabiyotlari b-n o‘zaro aloqada bo‘lib kelmoqda. Shu b-n birga jahon adabiyoti durdonalariga o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda. Uyg‘ur adabiyotiga tarixan yaqin bo‘lgan, o‘zining ilk taraqqiyoti bosqichlarida doimo hamdam bo‘lgan, keyinchalik o‘zaro adabiy aloqalari izchil davom etgan adabiyot – bu o‘zbek adabiyotidir. Uyg‘ur va o‘zbek adabiyoti har jihatdan bir-biriga juda yaqin.

Xususan, N. ijodi ushbu ikki xalqning adabiy aloqalarining samaradorligiga rahnamolik qilmoqda. N.ning ijod tajribalarini o‘rganishda uyg‘ur shoirlari faollik ko‘rsatganlar. XVI asrda yashagan shoirlar homiysi Abdurashidxondan boshlab XIX asr shoiri Bilol Nozimgacha N.ning mahorat maktabiga murojaat qilish izchil bir jarayon sifatida kechdi. Biroq uyg‘ur shoirlarining N. an’analariga murojaat etishi boshqalardan nusxa olish ham, taqlid ham emas edi. Aslida N.ga murojaat etish jahon adabiyoti tajribasida bo‘lganidek, daholardan o‘rganish, ularning ijodiy tajribalaridan bahra olib, yangi ijodiy kashfi-

yotlarga qo‘l urishdir. Qolaversa, N.ga murojaat etish ustoz an’analarini davom ettirish qobiliyatiga ega bo‘lgan ijodkorlarni ham talab qilar edi. Uyg‘ur adabiyotida ana shu shart-sharoitlar mavjud bo‘lib, uning Xirqatiy, Nizoriy, G‘aribiy, Zaliliy, Muhammad Sodiq Koshg‘ariy kabi namoyandalari Sharq adabiyotining bilimdonlari sifatida tanilgan.

XIX asrning o‘rtalarida Qashqarda tartib berilgan, o‘z mundarijasiga ko‘ra, iste’dodli uyg‘ur shoirlari Abdurahim Nizoriy, Turdi G‘aribiy va Navro‘zoxun Ziyoiylarning asarlaridan tarkib topgan va shartli ravishda “Muhabbat dostonlari” deb atalib kelinayotgan majmua qo‘lyozmasining keng kitobxonlar ommasiga ma’lum bo‘lishi b-n uyg‘ur adabiyotining tarixan juda katta mavqeyi yana bir marotaba ayon bo‘lib, uyg‘ur adabiyotining N. ijodi b-n aloqasiga oid yangi sahifalar ochildi.

Prof. X.Solihovaning fikricha, umuman, XVIII–XIX asrlar davomida Koshg‘ar va Yorkentda xattotlik san’ati rivojlangan bo‘lib, xattotlar tomonidan N.ning ko‘pgina asarlari ko‘chirilgan. Ularning ayrimlariga shoir asarlarining asl nomi qo‘yilsa, ba’zilari “Kulliyot” (To‘la to‘plam), “Bayoz” (Saylangan to‘plam), “Devon” (She’rlar to‘plami) deb atalgan. Bu davrda “Qashqariy” taxallusidagi xattotlarning shuhrati va ular ko‘chirgan qo‘lyozmalar Sharqiy Turkistondan to O‘rta Osiyo, Tatariston va Ozarbayjonlargacha yetib borgan. O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan va 150 ga yaqin xattot tomonidan ko‘chirilgan N.ning 450 dan ziyod qo‘lyozma va bosma asarlari ichida 66 ta qo‘lyozma nusxaning tuzuvchisi va kotibining ismi aniqlangan bo‘lib, bulardan 6 tasi “Qashqariy” taxallusli adiblardir. Mazkur fondda saqlanayotgan N. asarlarining “Kulliyot”ini 1824–1830-yy. da Qashqarda Abdurahim Fozil Qashqariy ismli xattot ko‘chirib kitobat qilgan. Bu “Kulliyot”ga N. asarlarining 19 tasi kiritilgan bo‘lib, shoirning hozirgacha aniqlangan qo‘lyozmalari ichida bu nusxa hajm qamrovi, kitobat san’ati va ilmiy qimmati jihatidan eng noyob nusxa hisoblanadi.

Uyg‘ur xamsanavisligida 2 maqsad ko‘zda tutilgan: 1. N. “X.”sini ko‘chirib tarqatish bo‘lsa, 2. “X.”sidagi dostonlarga naziralar yozish. Sulton Zuhriddinxo‘ja davrida N. “X.”si 500 nusxada ko‘chirilgan. Hozirda ham Sharqiy Turkistonda “X.”ning turli-tuman nusxalari saqlanadi. Faqatgina Qashqar viloyati muzeyida “X.”ning 21 ta nusxasi mavjud. Bundan tashqari, “Alisher Navoiy “Xamsa”sining qo‘lyozmalari katologi”-dagi ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zR FA Sharqshunoslik instituti va Hamid Sulaymonov nomidagi qo‘lyozmalari fondida saqlanayotgan 170 ta “X.”ning 12 tasini ko‘chirgan xattotlar Sharqiy turkistonlik bo‘lgan. Uyg‘ur xattoti Umar Boqiy 1792-y.i “F.Sh.”, “L.M.” dostonlarini tushunarli, oddiy nasriy uslubda qayta yozib chiqqan va bular “Qissayi Farhod-Shirin”, “Kitobi Layli-Majnun” nomi b-n Toshkentda 1909, 1910, 1912, 1915-yy.da toshbosmada ketma-ket bosilgan. 1-dostonga 13 ta, keyingisiga 11 ta miniatyura ishlangan. Mullo Siddiq Yorkandiy 1813-y. “X.”dagi 4 dostonga “L.T.”ni qo‘shib, “Bulbuli gulshani Navoiy” nomi b-n nasriylashtirilgan.

N. asarlari Yorkent xonligidan boshlab maktab va madrasalarda o‘qitila boshlagan, g‘azallari n.xonlik kechalariga fayz bag‘ishlagan. Shu bois, XVIII asrda Qashqarda N. asarlari lug‘ati tuzilgan. Ayniqsa, ulug‘ mutafakkirning sodiq muxlisi bo‘lgan Nazoriy 1806-y. “Navoiy” nomli darslik tuzib tarqatgan. Shoir Saburiy 1840-y.da “Navoiyning adolatparvarligi xususida” nomli kitobini yozib, N. “S.I.” dostonining ijtimoiy-g‘oyaviy xususiyatlari haqida mushohada yuritgan. Bu borada XX asr boshlarida Markaziy Osiyoga ko‘p sayohat qilgan va Tyan-Shanning janubi-shimolini aylanib chiqqan shvetsiyalik olim Sevin Xedin shunday yozgan: *“Navoiy bu yerdagi kitobxonlar uchun favqulodda suyukli muallif ekan. Bunga misol tariqasida o‘sha yerlarda yashayotgan uyg‘urlar orasida saqlanayotgan Navoiyning rangbarang asarlarini olsak bo‘ladi. Hatto Sharqiy Turkistonning eng uzoq hududi bo‘lgan Lobnorda Navoiy she’rlari ashula qilib aytilib, nazmgo‘ylik qilinar ekan. Navoiy dostonlari oddiy xalq orasida qissaxonlik ko‘rinishida keng tarqalgan ekan”.*

N. ijodini o‘rgangan, shoir ta’sirida ijod qilgan uyg‘ur shoirlari, adiblari va adabiyotshunoslari, nafaqat, Sharqiy Turkistonda, balki O‘zbekiston, Qozog‘iston, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Yevropa mamlakatlarida ham to‘xtab qolmagan. Jumladan, O‘zbekiston hududida ham uyg‘ur adabiyotshunoslari N. ijodi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Uyg‘ur va o‘zbek adabiyotshunosligida mazkur mavzu ko‘pdan buyon tadqiqotchilarning diqqat markazida bo‘lib keldi. Jumladan, S.Y.Malov, A.Ziyoiy, M.Hamroyev, Y.Muxlisov, U.Mamatoxunov, S.Erkinov, R.Qodiriy, Sh.Umar, V.G‘o‘pur, A. Husayn, T.Aliyev, S.Mallaudov, D.Ro‘ziyeva, I.Imirov, Q.Hasanov, D.Rayhonov kabi olimlar munosib hissa qo‘shdilar. Bu yo‘nalishda uyg‘ur adabiyotida N. an’analari masalalarini tadqiq etgan M.Hamroyev, Y.Muxlisov, R.Qodiriy, D. Ro‘ziyeva va D.Rayxonovlarning ilmiy ishlarini alohida ta’kidlash kerak. Bu xususda uyg‘ur olimlari jamoasi tomonidan yaratilgan “Uyg‘ur adabiyotining qisqacha tarixi”, “Uyg‘ur klassik adabiyoti tezislari” kabi asarlarda ham ilmiy ahamiyatga molik xulosalar bayon qilinganligini qayd etish lozim.

M-n, filolog olim R.Qodiriy uyg‘ur shoirlari u-n “Navoiy o‘lmas asarlari bir necha asrlar davomida mahorat sirlarini o‘rganadigan adabiy maktab bo‘lib xizmat qildi”, deb yozadi. Tadqiqotchi M.Hamroyev esa N. ijodining uyg‘ur shoirlariga ijobiy ta’siri xususida so‘z ochib, uning ikki yo‘l b-n davom etganini urg‘ulagan: 1. Uyg‘ur shoirlarining N.dan so‘z san’ati bilimlarini o‘rganishlari; 2. Ularning N. asarlaridagi mavzu va syujetlariga murojaat qilishlarida ko‘rinadi. Ushbu xulosa garchi uyg‘ur va o‘zbek adabiy aloqalarining hamma shakllarini qamrab olmasa-da, mohiyatan masalaga xolis yondashuvdir. M-n, Arshiy ismli uyg‘ur shoiri N.ning:

Navoiy shoyad u rahravg‘a
bu maqsad nasib o‘lg‘ay,
Kim ul dashti fano qat’ etkali
yillar qadam chekti, –

maqta’li g‘azaliga shunday payrov qilgan:

Diyori nazm aro shonlig‘
Navoiy garchi ko‘p surdi,
Gado Arshiymu xon so‘z
mulkida yillar qadam chekti.

N. she’riyatining obrazlar olami, badiiy xususiyatlari, tasavvufiy ma’no qatlami uyg‘ur shoirlari bog‘lagan taxmislarda ham davom etgan. Sohibdevon qalamkash A.Nizoriyning quyidagi N. g‘azaliga bog‘lagan muxammasi o‘zi ergashayotgan so‘z san’atkorining poetik mahoratiga “panja urib”, ancha yaqin kelganini ko‘rsatadi:

Ayo charxi zolim, jafoni unutqil,
Zamona vafo qilki, bizni ovutqil,
Aloyiq ishidin ko‘ngulni sovutqil,
Sabukruh soqiy, fano jomi tutqil,
Ki o‘zluk yukidin garonborlarbiz.

Uyg‘ur shoirlarining N. an’analariga munosabati xususida Y.Muxlisov, S.Mallaudov, U.Mamatoxunov kabi bir qator uyg‘ur olimlarining asarlarida ham muhim fikrlar o‘rtaga tashlangan. Xususan, Y.Muxlisov “Asrlar va asarlar” monografiyasida Nizoriy va G‘aribiy dostonlarining N. nazmi b-n muqoyasasi asnosida adabiy aloqalarning xarakteri va samaralari haqida kuzatishlari b-n ilmiy jamoatchilikning e’tiborini tortdi. U o‘z tadqiqotlarida Nizoriyning “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, G‘aribiy “Shoh Bahrom va Dilorom” dostonlarida N. an’analariga asoslanadilar, biroq o‘z oldilariga qo‘ygan ijodiy maqsadlaridan kelib chiqib, asar voqealarini muxtasarlashtirish, ayni paytda uning to‘qimasiga o‘z yangiliklarini singdirish yo‘lidan borganini ta’kidlaydi.

Mustaqillik yillarida o‘zbekistonlik uyg‘ur olimlaridan X.Solihova, H.Islomiy, A.Xodjayevlar ham N.ning ilmiy merosiga e’tibor qaratganlar. Jumladan, H.Solihovaning “Navoiy va Nizoriy” (1993), “Alisher Navoiy va uyg‘ur adabiyoti” (1994) monografiyalari shular jumlasidandir.

N. ijodiga qiziqish Xitoyda, jumladan, hozirgi Shinjon uyg‘ur muxtor o‘lkasida ham ortib borgan. 1941-y.da Xitoydagi Chuguchak shahrida N. tavalludining 500 yilligi bayram sifatida

nishonlangan. Mashhur uyg‘ur shoiri Tolibjon Aliyev N.ning “X.M.” kulliyotidagi g‘azallaridan tanlab olib tuzgan “G‘azallar” nomli risolasi 1982-y.da Urumchida nashr qilingan. Ushbu risoladagi ba’zi g‘azallar xitoy tiliga ham tarjima qilinib, Ichki Mo‘g‘ul tumanida ham nashr etilgan. 1988-y.da N.ning “M.L.” asari Pekinda nashr qilingan. 1991-y.i Urumchida shoir tavalludining 550 yilligi nishonlandi va bir necha asarlari nashr qilindi. 1994-y.da shoirning bir necha asari uyg‘ur tilidagi jurnallarda chop etilgan. 2001-y.da Pekinda N. tavalludining 560 yilligiga bag‘ishlangan ilmiy anjuman o‘tkazilgan. Ushbu anjumandan so‘ng N. asarlarini nashr qilish, uning ijodi yuzasidan xitoy va uyg‘ur tillarida ilmiy tadqiqotlar olib borish ishlari boshlandi.

Xullas, N. ijodi barcha turkiy xalqlar qatorida, uyg‘ur adabiyotshunoslarining tadqiqotlarida muhim manba bo‘lgan. Bu masalani o‘rganish n.shunoslikning yangi qirralari va dolzarb masalalarini ochib beradi.

Ad.: *Алишер Навоий: Ғазаллар. Нашрга тайёрловчи Алиев Т. – Урумчи, 1982 (уйғур тилида); Алишер Навоий. Муҳокамат улуғатайн. – Бейжинг, 1988 (уйғур тилида); Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. – Қашқар, 1990; Алишер Навоий. Хамса. – Урумчи, 1991.; Алишер Навоий. Лисон ут-тайр // “Булоқ” журнали. 1994 йил. 1-2 сонлари; (Мулло Сидиқ Ёркандий насрлаштирилган нусхаси). 1994 йил 3-4 сонлари; Аршиддинов Б. Уйғур классиклири ижадийитида дастан жанри. – Алма-ата, 1988; Маллаудов С. Тарихий достонлар. Тўплам: Уйғур адабиёти ва фольклоридаги жанрлар. – Алма-ата, 1980; Маматохунов У. Уйғур адабиёти классиклари. – Т., 1960; Мугинов А. Описание уйгурских рукописей инс-та народов Азии. – М., 1962; Мухлисов Ю. Уйғур классик қолязмаларининг каталоги. – Урумчи, 1956.; Мухлисов Ю. Асрлар ва асарлар. – Алмата, 1973; Райхонов Д. Место и значение произведений Наваи в литературной жизни уйгуров. АКД. – Алма-ата, 1992; Райхонов Д.М. Интерпретация произведений Алишера Навои уйгурскими классиками XVIII-XIX в.в. – Известия Национальной Академии наук Республики Казакстан; Розиева Д. Низорий ижодида Навоий традицияси. Тўплам: Уйғур адабиётидики традиция ва наваторлиқ масилилири. – Алма-ата, 1976; Солиҳова Х. Уйғур достончилиги ва насри тараққиётида Алишер Навоий “Хамса”сининг ўрни // Фил.ф.док.... диссертацияси. – Т., 1995; Қодирий Р. Уйғур адабиётида Навоий анъаналари / “Адабий мерос”. 1963. 1-китоб; Хамраев М. Веков неумирающая слова. – Алма-ата, 1969.; Хамроев М. Тарих, назария, маҳорат. – Алма-ата, 1964; Ҳурматжон Фикрат., Қодир Акбар. Ўзбек адабиёти тарихи. – Урумчи, 2005. (уйғур тилида); Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар // “Булоқ” журнали. – Урумчи, 1992. – №3.*

H.S., S.O‘.

ALISHER NAVOIY VA QORAQALPOQ ADABIYOTI – Qoraqalpoq adabiyotida ulug‘ shoirga ehtirom alohidadir. Jumladan, Kunxo‘ja, Ajiniyoz, Berdaq, O‘tesh, Umar, Ayapbergan Musayev singari shoirlar, keyinroq Abbaz Dabilov, Sodiq Nurimbetov, Ibroyim Yusupovlar N. ijod chashmasidan bahramand bo‘lganini ko‘p bora ta’kidlashgan. XIX asr qoraqalpoq adabiyotining yirik siymolaridan biri Berdaq Qarg‘aboy o‘g‘li “Izlar edim” she’rida shunday yozgan edi:

Nao‘ayıdan sao‘at ashtıt,
Fizuo‘lıdan durler shashtıt,
Diluarlardıı izler edim.

S.Nurumbetovning “Navoiy haqida she’r”ida mana bunday misralar bor:

Ullıı shayıır kөrkem sөzdiң ustasıı,
“Lәyli-Mәjnun”, “Farhad-Shirin” nusqasıı,
Sizden bizge miyras qaldıı Nao‘ayıı,
Qıız jigittiң suyip oqıır qıssasıı.

Berdaqning “Navoiydan savod ochdim”, deb yozgani bejiz emas edi. Qoraqalpog‘istondagi oliy o‘quv yurtlari u-n nashr qilingan “Qoraqalpoq adabiyoti tarixi” darsligida yozilishicha,

“Qaraqalpaq mekteplerinde Shıg‘ıs poeziyasınıń ullıs o‘əkilleri Nao‘ayı, Hafız, Saadiy, Fizuliy, Bedil sıyaqlı kərkem sөz ustalarınıń shıg‘armaları oqıtıla basladı. Bul əjayıp shıg‘armalardan təsirlengen qaraqalpaq klassiklerinińshıg‘armalarında dun’yag‘a kөzqaras həm real motivler өtkirlese basladı”.

N. she’rlarining Berdaq lirikasiga ta’sirini janr o‘xshashligidan emas, g‘oyaviy motiv talqini, mavzu tanlash, davr muammolariga munosabatda faol pozitsiyada turishdan izlansa, to‘g‘riroq bo‘lardi. Sharq adabiyotiga ixlos qo‘yib, undan savod ochgan shoir, garchi aruzda qalam tebratmagan bo‘lsa-da, beqiyos she’riyati b-n qoraqalpoq adabiyoti tarixida yangi sahifa ochdi, uning asoschilaridan biriga aylandi.

Berdaq xalqchillik, vatanparvarlik mavzularini kuylashni ijodining bosh maqsadi deb bildi. Adolatni himoya qilib, adolatsizlikka qarshi kurashdi. Ibratli odob-axloqqa qanchalik xayrixoh bo‘lsa, ma’naviy tubanlikka shu darajada murosasiz bo‘ldi. Bu g‘oyalarga xizmat qilishda N. tajribalari, ko‘pgina asarlarining leytmotivi Berdaq u-n ibrat bo‘lgan. M-n:

Jumıs isle, tuo‘ılg‘an soң el ushın,
Janıńdı ayama elde er ushın,
Өlip ketkeniңshe xızmet jaqsıraq –

kabi she’riy parchalarni o‘qiganda, shoirning o‘z vatani, xalqi taqdiriga naqadar daxldor ekani to‘g‘risidagi fikr ko‘ngildan o‘tadi. Bu misralar bizga beixtiyor N.ning:

Odami ersang demagil odami,
Onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami –

degan mashhur baytini eslatadi. Berdaqning “Omongeldi”, “Oydo‘sbobo”, “Ernazarbiy”, “Ravshan”, “Axmoq podsho”, “Shejere”, “Xorazm” kabi poema va dostonlari XIX asr qoraqalpoq adabiyotining go‘zal namunalaridir. Berdaq doston janriga o‘tishda, folklordan foydalanish, ularni doston syujetiga moslashtirib, asar g‘oyasiga bo‘ysundirish, obrazlarni individual qiyofada ko‘rsatishda ham N.ning dostonchilik tajribasiga tayangan.

N. an’analarini qoraqalpoq adabiyotida davom ettirib, mumtoz she’riy shakllarda boy adabiy meros qoldirgan shoirlardan biri Ajiniyoz Qo‘siboy o‘g‘lidir. Ajiniyoz XIX asr qoraqalpoq adabiyotida lirik shoir sifatida tanildi. Shoirning “Bordur” radifli she’rida mana bunday satrlar bor:

Xoja Hafız Nao‘ayıdan sabag‘ın,
Alan neshshe alım, kətibi bardı.

Bu misralarda shoir mening yurtimda Xo‘ja Hofiz, N.dan saboq olgan qator olimlar, kotiblar ham bor, demoqda. Ajiniyozni N. ijodiga yaqinlashtiradigan yana bir omil bor. Ma’lumki, Ajiniyoz Xiva madrasalarida tahsil olgan. Qadim madrasalarda Sharq adabiyoti durdonalari darslik, o‘quv qo‘llanma o‘rnida foydalanilgan. Firdavsiy, Jomiy, Sa’diy, Fuzuliy, N., Bedildek daholarning asarlari shu vazifani bajargan, toliblar u-n ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etgan. Ajiniyozda aruzda yozish malakasi madrasada shakllangan. Mumtoz she’riyatga xos ifoda unsurlari (badiiy tasvir qurollari) b.da she’riy san’atlarni qo‘llashida salaflarning badiiy-estetik tajribalari yordam bergan. Jumladan, N. lirikasi Ajiniyoz u-n ko‘proq ulgi bo‘ldi. Shoirning “Ko‘zlarim”, “Beri kel”, “Uyg‘on”, “Chiqdi jon”, “Ay alif”, “Qiz Oraz” muxammaslarining ifoda ko‘rinishi, poetik talqin, majoziylik xususiyatlari N. g‘azallarini yodga soladi. Madrasa ta’limini olgan Ajiniyoz u-n boshqalardan ko‘ra N.ga ergashish kuchliroq bo‘lgani tabiiy. Shoirning boshqa bir muxammasidan yana bir band:

Nıspı shəm keldim qashıңa,
nazlı jənanım oyan,
Sham-shırag‘ yaqtım bashıңa,
nuo‘rı əno‘arım oyan,
Kөzlerimniң rəo‘shanı, ol maxı
tabanım oyan,
Yolında zar əylegen, əy misli
əfganım oyan,
Men seniң, keldim qashıңg‘a rəhim et,
janım, oyan...

Ishq-muhabbatning bunday sehrli talqini, jozibasi, N.ning “Kelmadi”, “O‘ltirgusi”, “Ayt”, “O‘n sakkiz yoshindadur” kabi g‘azallaridagi lirik qahramonning holatini esga soladi. Ajiniyoz muhabbat mavzusidagi she’rlar yozishda N.ning ijod maktabidan ilhomlanganini shoirning barmoq vaznida yaratilgan she’rlari ham tasdiqlaydi:

Qəlem qashli, xosh qılıqlı nigərim,
Aq tamaq, qıpsha bel suyikli yarım,

Bul dunyada ashıq bolg‘an inkərım,
Zarı-giryan etti, nege kelmedi?

Jolına qarayman erteli – keshli,
Kunnen de shıraylı, ayday rəo‘ishli,

Ay juzlim, pal sözlim aqıllı esli,
Inkərim, dilbərim,nege kelmedi?...

Bu satrlarni o‘qib N.ning:

Kecha kelgumdur debon, ul sarvi gulro‘ kelmadi,
Ko‘zlarimga kecha tong otquncha uyqu kelmadi –

bayti b-n boshlanadigan mashhur g‘azalini yodga olamiz. Xullas, Ajiniyozning Sharq mumtoz adabiyoti an’analariga munosabatida N.ning she’riyat ummoni va poetik tajribasi ma’naviy tayanch bo‘lgan.

Zamonaviy qoraqalpoq adabiyotida ham N. g‘oyat qadrlanadi. Buni shoirdan ilhomlanib she’rlar, g‘azallar bitgan adiblar misolida ko‘ramiz. O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq shoiri Ibroyim Yusupov shunday ijodkorlardan biri. She’rlaridan birida shoir N. merosiga ehtiromini quyidagicha ifodalagan:

Sahra gullarin shashayin ustiņe,
Nao‘ayınpı suygen qaraqalpaq bolıp.
Ibrayım der, ullı ruo‘xıņ aldında,
Bas iyeyin shəkirtiņ Berdaq bolıp.

Bu shunchaki, aytilgan gap emas. I.Yusupov qalb haqiqatini, shoirga cheksiz hurmatini ulug‘ shoir g‘azallariga yozgan naziralari orqali ham ifoda etgan. “X.M.”ning ikkinchi devoni “N.Sh.”da “Uyg‘ot” radifli bir g‘azal bor. Matla’si shunday boshlanadi:

Sho‘x ikki ko‘zingni noz uyqusidan uyg‘ot
To uyqulari ketsun gulzor ichida uyg‘ot...

I.Yusupov ushbu g‘azalga nazira bog‘laydi. Nazira yetti baytli bo‘lib, aruz vaznida yozilgan. Unda nazira bog‘lash san’ati talablari to‘la saqlangan.

Yar, oyan naz uyqıdan, taņ səhar bolıp qaldı,
Jəne Əmio‘ boyında nəo‘bəhər bolıp qaldı...
Kiyikler kuralaylap Usturt shөlliginde,
Samanbay tog‘ayında bəhər bolıp qaldı.
Bəhər shıqsın dep ayazda
köp qoydıņ Ayaziydi,
Endi mine Ibrayımg‘a bəhər
bolıp qaldı.

G‘azallar mazmuni tubdan farq qiladi. I.Yusupov g‘azalida zamon va makon talqini konkret. U qoraqalpoq hayoti haqida. Kolorit ham shunga monand. O‘lkaning tabiati, fasllari, cho‘l-u dashtlari, hayvonot olami, shahar-u qishloqlari tasviri g‘azalning ichki mazmunini tashkil etadi. Bahor faslida shoir yurtida yuz beradigan har bir o‘zgarish, uyg‘onish jarayonlari chinakam milliy ruhda badiiy gavdalantiriladi. Muallif bu hayot manzarasini chizishda N. g‘azali shaklidan foydalangan.

I.Yusupov “Bahor va sen” nomli g‘azallar majmuasini yaratdi. Turkum bag‘ishlov xarakterida bo‘lib, o‘n yetti g‘azaldan iborat. Har biri Hofiz, Lutfiy, N., Fuzuliy, Mashrab, Nodira, Furqat kabi shoirlarga bag‘ishlangan. Shoirning “O‘zbek sozi”, “Ko‘rdim” g‘azallarida N. she’riyatini qadrlash mazmunidagi quyma satrlar mavjud. I.Yusupov N.ning bir necha g‘azallarini qoraqalpoq tiliga tarjima ham qilgan.

Bugungi qoraqalpoq adabiyotida ham N. an’analari davom etmoqda. Bu yo‘lda fidoyi ijod qilib kelayotgan shoirlardan biri Abulqosim O‘tep-

bergenovdir. U Sharqning buyuk so‘z san’atkorlari ijodini yaxshi biladi. She’rlari orasida N. ta’rifiga bag‘ishlangan ruboiylar mavjud. Mana, shulardan bir namuna:

“Juk ao‘ırғın nar kөterer”
degen gəp bar əzelden,
Galaktika jarattың sen dəstan menen
g‘əzelden.
Shax qaznasы basыndada əy
Əliysher Nao‘ayы,
“Xalqыm” deyip, o‘az kes
htiң – ao‘ əyshi-əshret həm zerden.

Abulqosim muxammas bog‘lash yoki nazira yozish u-n Sharqning donishmand shoirlarini tanlagan. Yassaviy, Nizomiy, Rumiy, Dehlaviy, Nasimiy, Jomiy, Fuzuliy, Maxtumquli g‘azallariga bog‘langan muxammaslar shular jumlasidandir, ayniqsa, uning N., Bobur, Zebuniso, Mashrab, Ogahiy, Furqat g‘azallariga bog‘langan muxammaslari poetik ohangi, romantik pafosi, nafosati b-n diqqatga sazovor.

Adabiyot tarixida N.ga ijodiy ergashib, naziralar, muxammaslar yozgan ijodkorlar juda ko‘p. Abulqosim ham N. g‘azallariga badiiy mahoratini sinash, chiniqtirish, tajriba orttirish maqsadida yondashgan. Ulug‘ shoir murojaat etgan mavzularga, badiiy san’atlardan foydalanish iste’dodiga, lirik qahramonning ruhiyati iqlimlaridagi rang-baranglikni berishda N. kashf etgan g‘oyaviy-estetik konsepsiyalarga ergashgan. U N.ning 20 dan ortiq g‘azaliga muxammas bog‘ladi. Ba’zilarida “Abulqosim”, ayrimlarida “Jayhun”ni taxallus o‘rnida qo‘llaydi. Shoir g‘azallaridan birida yozadi:

Təzim et sen Əbilqasыm Əlisher Nao‘ayыg‘a,
Poeziya atlы sulыo‘dың basыnda jыg‘a edi ol.

B.ning bir g‘azali shunday yakunlanadi :

“Nao‘ayы bolmag‘anda
Jayhun sen-she bolarma edің?”
Degenlerge “haslan, haslan, yaq, yaq,”
dep aytыp jurmen.

Ikki baytda ham shoirning N. dahosiga ixlosi, ehtiromi, eng muhimi, shoirlik taqdirida buyuk N.ning o‘rni mamnunlik ruhida aytilgan. Shuningdek, “Kelmadi” radifli g‘azaliga yetti baytlik yaxshi bir muxammas yaratildi.

Jayhun ashыq bolsaң eger,
azab uqыbattan qashma,
Aңsatlыqta yar diydarы,
shiyrin posa yoqdur xasla,
“Char deuan”dы qolg‘a alыp,
ayralыq qosыg‘ын basla,
Əy Nao‘ayы, sharap iship,
өz keo‘liңdi өzің xoshla,
Senің-aq, baxtыңnың bir,
utыgы, payыты, elmedi.

N.ning “Bo‘lmagay”, “Ko‘ring”, “Bo‘lgan emas”, “Naylayin”, “Ko‘rdim”, “Go‘zal yorga” radifli g‘azallariga yozilgan muxammaslar ham o‘quvchini qoniqtiradi. Muallifning “Bo‘lmagay” radifli muxammasida N. g‘azalidagi lirik qahramonning ruhiy holati, oshiq, yor ramzlari, sevgi-sadoqat mavzusi Abulqosim qalamida individual mazmun va ohangda berilib, shoirning badiiy-estetik tafakkuri darajasida talqin etiladi.

Hesh kim men kibi ilayым yarg‘a intizar
bolmag‘ay,
Tarы həo‘jinde uzilgen,
ərmanlы duo‘tar bolmag‘ay,
Shaqasыnda turыp solg‘an,
o‘ax almalы-nar bolmag‘ay,
Yarыnan hərkim ayrылыp,
mendey axыo‘-zar bolmag‘ay,
Mendey bul jaqtы əlemde,
rəso‘alыqqa duo‘shar bolmag‘ay.

N. merosi b-n qoraqalpoq kitobxonlarini tanishtirishning keyingi bosqichi 1960–1970-yy. ga to‘g‘ri keladi. Bu davrda yangi tarjimonlar avlodi yetishdi. M.Matnazarov tarjimasida “S.S.” dostoni bosildi. 1977-y.da N.ning bir dasta g‘azallarini D.Aytmurotov qoraqalpoqchalashtirdi. 1991-y.da tarjimon ushbu kitobni, yangi tarji-

malar b-n to‘ldirib, qayta chop ettirdi. N.ning bir yuz o‘ttizga yaqin g‘azallari, hikmatlaridan namunalar, shuningdek, “H.A.”, “L.M.” dostonlaridan boblar tarjimasi ham ushbu to‘plamga kiritilgan. “Saylanma” kitob N.ning hozirgacha qoraqalpoq tilida e’lon qilingan tarjimalarining, nisbatan to‘liqrog‘i. 1991-y.da Toshkent nashriyotlaridan birida, shoir yubileyi munosabati b-n yana bir tarjima kitob, “Baqo guli” nashr etildi. To‘plam N.ning dunyoning bir necha tillariga o‘girilgan g‘azallaridan iborat. Kitobdagi o‘nta g‘azalning qoraqalpoqcha tarjimasini taniqli shoir Sh.Ayapov amalga oshirgan.

N. ijodi yuzasidan qoraqalpoq adabiyotshunoslari tomonidan qator ilmiy tadqiqotlar ham yaratilgan. Shoir merosiga qiziqish o‘tgan asrning 20–30-yy.idan boshlanganini manbalar tasdiqlaydi. Taniqli olimlar, hatto shoir va yozuvchilar ham bu mavzu b-n shug‘ullangan. Maqolalari b-n matbuotda qatnashib turgan. J.Aymirzayev, A.Begimov, N.Davqarayev, M.Daribayev, N.Japaqovdek atoqli olimlar va adiblarning N. ijodiga bag‘ishlangan, matbuotda bosilgan maqolalari o‘z davrida adabiyot ixlosmandlarini shoir ijodi b-n tanishtirishda muhim bo‘ldi. I.Sag‘itov, A. Murtazayev, Q.Maqsetov, K.Mambetov, H.Hamidov, Q.Jarimbetov kabi olimlarning Qoraqalpog‘istonning gazeta-jurnallarida turli yillarda bosilgan maqolalari, nashriyotlarda chop etilgan risolalari shular jumlasidandir.

Hozir qoraqalpoq n.shunosligi alohida yo‘nalish sifatida shakllanib bormoqda. K.Mambetovning Sharq adabiyoti, jumladan, N. ijodini qoraqalpoq adabiyoti b-n qiyosiy o‘rgangan qator maqolalari, “Navoiy va qoraqalpoq adabiyoti” (1991), “O‘zbek va qoraqalpoq adabiy aloqalari” (1992) risolalari va boshqa olimlarning tadqiqotlari shu xulosaga kelishga asos beradi. “Ko‘ngil bermish so‘zimga” (1992) nomli monografiyaning bir bobi shu mavzu tahliliga bag‘ishlangan.

Qoraqalpog‘istonda N. ijodiga qiziqish, merosini targ‘ib qilish hech qachon susaygan emas. Shoir tavallud sanasi har yili xuddi qoraqalpoq adabiyoti bayramidek nishonlanadi. Ilmiy-nazariy konferensiyalar o‘tkazilib, adabiy uchrashuvlar tashkil etiladi. Bu an’ana asrlar osha davom etishi shubhasiz. Ulkan she’riyati, olamshumul insonparvarlik g‘oyalari b-n bir emas, bir necha adabiyotlarga beqiyos hissa qo‘shgan siymolargina mana shunday e’zozga munosib ko‘riladi.

Ad.: *Мамбетов К. Навоий ва Қорақалпоқ адабиёти. – Н., 1991; Қурамбоев К. Кўнгил бермиш сўзимга. – Т., 1992.*

K.Q.

ALISHER NAVOIY METRO BEKATI – 1984-y. 8-dekabrda ishga tushirilgan. Toshkent metropolitenining O‘zbekiston yo‘lida joylashgan. Mazkur bekatga Alisher Navoiy shohko‘chasidan tushiladi. Shu sababli Alisher Navoiy nomi berilgan. Ushbu bekatdan Chilonzor yo‘lining Paxtakor bekatiga o‘tiladi. Bekat platformasi rassomlar R.Muhamadjonov va A.Rahimovlar tomonidan N.ning “X.”sidagi syujet bo‘yicha ishlangan. Bekat devorlariga rassomlar Ch.Axmarov va I.Qayumovlar ishlagan “X.” asariga oid pannolar joylashtirilgan.

Ad.: *Интернет маълумоти: Vikipedia.org. Alisher Navoiy metro bekati.*

M.A.

“ALISHER NAVOIY MUG‘ANNIYNOMALARI” – musiqashunos Laylo Jo‘rayevaning N. va musiqa mavzusiga bag‘ishlab yozgan kitobi. Ushbu kitob buyuk mutafakkir va ulug‘ shoir N. ijodida o‘ziga xos tarzda shakllangan mug‘anniynomalar yig‘indisi va ularning sharhiga bag‘ishlangan. N.ning “X.M.” devoni, “S.I.” dostonida keltirilgan mug‘anniynomalar tahlilga tortilgan. N. musiqa bilimdoni va musiqani o‘z asarlarida chuqur ma’nolar tizimida qo‘llagan mutafakkir bo‘lgani tufayli bu mug‘anniynomalar mazmuni musiqashunoslik nazari b-n sharhlashga harakat qilingan.

Kitobning mazmun mundarijasi “Alisher Navoiy ijodida musiqa atamalari”, “Alisher Navoiy ijodida mug‘anniynomalar”, “Soqiynoma va mug‘anniynoma munosabati xususida”, “G‘aroyib us-sig‘ar” devoni”, “Navodir ush-shabob”

devoni”, “Badoye’ ul-vasat” devoni”, “Favoyid ul-kibar” devoni” va “Saddi Iskandariy” dostonida mug‘anniynomalar” kabi boblarda aks etgan.

Ad.: *Жўраева Л. Алишер Навоий муғанний-номалари. – Т., 2011.*

S.G‘., M.A.

ALISHER NAVOIY NOMIGA ZAMONDOSH OLIMLAR TASNIF QILGAN KITOBLAR – N.ning buyuk shaxsiga bag‘ishlab yozilgan kitoblar. Mumtoz muarrix Xondamirning “Makorim ul-axloq” asarining “She’r fazilati va shoirlarning yuksak martabalari haqida” nomli uchinchi faslida ma’lumot bergan. Ularning ro‘yxatini quyidagicha tasnif qilgan:

1. “Sharhi Faroiz”. Oliy hazrat shayxulislom... Sayfuddin Ahmad Taftazoniy asari.

2. “Ravzat ul-ahbob fi siyar un-nabi val-as’-hob”. Ikki jildlik... Amir Jamoluddin Atoulloh Asiliy asari.

3. “Tafsiri forsiy”. Oliyjanob fayz egasi Mavlono Kamoluddin Husayn al-voiz al-Koshifiy asari.

4. “Sharhi arba’in”. Imom Navaviy asari.

5. “Hoshiyayi muxtasar”, “Hoshiyayi Chag‘-miniy”, “Hoshiyayi sharhi”, “Hidoyayi hikmat”, “Hoshiyayi sharhi ashkol”, “Ta’sis sharhi bist bobi usturlob”, “Hoshiyayi mavoqif”, “Sharhi miat ul-omil”. Bular maxdumiy Mavlono Fasihuddin Muhammad Nizomiy tasniflari.

6. “Sharhi mishkot”, Fazilat egasi janob xoja Imomuddin Abdulaziz Abxariy asari.

7. “Xoshiyayi sharhi hikmati ayn”. Janobi marhum mavlono Kamoluddin Mas’ud Shirvoniy asari.

8. “Risola dar ilmi farosat”. Mavlono Abdurrazzoq Kirmoniy yozgan.

9. “Hoshiyayi sharhi mo‘jizi Mavlono Nafis”. Hikmat egasi Mavlono G‘iyosuddin Muhammad asari.

10. “Tarjimayi adabiyoti nafahot”. Mavlono Nizomuddin Ahmad Pir Shams asari.

11. “Tazkirat un-nufus”. Mavlono Darvish Ali tabib tuzgan.

12. “Hoshiyayi Mutavval”. Xoja Abulqosim Abullaysiy qalami b-n yozilgan.

13. “Hoshiyayi Miftoh”, “Hoshiyayi Talvih”. Xoja Xovand Abullaysiy asarlari.

14. “Sharhi Mo‘jaz”. Sabzavor qozisi Mavlono G‘iyosuddin asari.

Ro‘yxati berilgan ushbu kitoblar N. kutubxonasida saqlangan.

Ad.: *Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Т., 2015.*

B.R.

“ALISHER NAVOIY OZARBAYJON ADABIYOTSHUNOSLIGIDA” – Ozarbayjon Milliy Ilmlar akademiyasi Nizomiy nomidagi Adabiyot instituti olimlari tomonidan tayyorlangan maqolalar to‘plami (Boku, 2009, 360 bet). U Almaz Ulviyning “Bir yaproq so‘z” nomli so‘z-boshisi b-n ochilgan. Olima ozarbayjon-o‘zbek adabiy aloqalarining qisqacha tarixi hamda tadqiqotchilarini alohida ta’kidlab ko‘rsatgan. Majmuadagi materiallar bir asrlik davrni o‘z ichiga oladi. Ilk maqola 1907-y.ga oid bo‘lsa, so‘nggi maqola 2007-y.ga taalluqlidir. Kitobdagi barcha maqolalar N.ning hayoti va ijod olami b-n bog‘liq bo‘lib, ularni quyidagicha tasnif qilish mumkin: 1) N.ning oilasi, bolaligi haqida; 2) O‘qib, o‘rganish, ta’lim va tarbiya davri haqida; 3) Ustozlari, kamolot davri (Mashhad, Samarqand madrasalari) haqida; 4) Navoiy va temuriylar davlatchiligi (Abusaid mirzo, Abulqosim Bobur mirzo, Husayn Boyqaro davri) haqida; 5) Navoiy va u yaratgan o‘ttizdan ortiq asarlarning qo‘lyozma nusxalariga, nashrlariga izohlar xususida; 6) Navoiyning “X.” dostoni. Dostondagi Nizomiy, Dehlaviy, Jomiy haqidagi maxsus boblar haqida; 7) Navoiyda Nizomiy, Fuzuliyda Navoiy an’analari. Umuman, shoir asarlarida, xususan, “M.N.”da ozarbayjonlik ijodkorlar, “N.M.”da ozarbayjonlik shayxlar haqida; 8) Navoiy – yirik davlat arbobi sifatida; 9) Navoiy asarlarida umumbashariy g‘oyalar, badiiy-estetik, falsafiy tafakkur va ta’lim-tarbiya masalalari haqida; 10) Navoiy – adabiyotshunos sifatida; 11) Navoiy – tilshunos sifatida; 12) Navoiy – tarixchi sifatida; 13) Navoiyning badiiy mahorati: obrazlar olami, she’riy san’atlar; 14) Navoiy tarixiy-zamonaviy o‘zbek va ozarbayjon aloqalarining ramzi hamda xotira, kelajakning timsoli sifatida.

Mazkur maqolalar bizga Ismoil Gaspirinskiy, Bakir Cho‘banzade, Samad Vurg‘un, Hamid Arasli kabi ulug‘ ma’rifatchilar, shoirlar, olimlar faoliyati b-n tanishish imkonini beradi.

Ad.: *Алишер Навоий Озарбайжон адабиётшунослигида. – Баку, 2009.*

B.R.

“ALISHER NAVOIY” xalqaro elektron jurnali – 2021-y.da N. tavalludining 580 yilligi munosabati b-n Samarqand davlat universitetida tashkil qilingan. Jurnalga prof. Ibodulla Mirzayev asos solgan bo‘lib, hozirda jurnal uning bosh muharrirligida faoliyat ko‘rsatmoqda. Jurnal “Navoiy va jahon adabiyoti”, “Navoiy va tilshunoslik masalalari”, “Temuriylar davri turkiy va o‘zbek adabiyoti”, “Bahosiz bitiklar”, “Asliyat ummoni”, “Navoiy nasri va nazmi nafosati”, “Tasavvuf”, “Fasohat”, “Badiiyat”, “Aruz va qofiya”, “Adabiy ta’sir”, “Ta’lim-tarbiya” kabi bir qator ruknlardan iborat. AQSHning Crossref. org tizimiga kiritilgan hamda har bir maqolaga raqam beriladi. N.shunoslik, shoir adabiy merosining umumjahon tamaddunida tutgan o‘rni va adabiy ta’sir masalalari oynomada yoritib boriladi, shuningdek, yurtimiz va xorijlik n.shunos olimlarning buyuk shoir ijodining dolzarb masalalariga bag‘ishlangan maqolalari e’lon qilib boriladi. Ushbu xalqaro elektron ilmiy jurnalga maqolalar o‘zbek, rus, ingliz, fransuz, turk, tojik kabi tillarda qabul qilinadi. Nashr jahonning turli mamlakatlarida amalga oshirilayotgan n.shunoslikka oid tadqiqotlarni yoritib borishga mo‘ljallangan.

S.O‘.

“ALISHER NAVOIY “XAMSA”SI” – “Xamsa” yaratilganiga 500 yil to‘lishi munosabati b-n tartib berilgan ilmiy to‘plam. Ushbu majmua akad. Izzat Sultonning “Jahon adabiyotining nodir obidasi” nomli maqolasi b-n boshlanib, atoqli n.shunos A.Abdug‘afurovning “Xamsa”ning ijtimoiy mohiyatidan bahs yurituvchi tadqiqoti b-n davom topgan. Prof. A.Hayitmetov o‘z maqolasini “Navoiy estetikasining yuksak bosqichi” deb atagan bo‘lsa, S.G‘aniyeva “Nafis xarakterlar talqini”ga e’tiborni jalb etgan. Y.Is’hoqov (“Xamsa”da badiiy psixologizm tiplari”) va B.Valixo‘jayev (“Xamsa” takomili”)ning maqolalari qiziqib o‘qilgani singari E.Shodiyev (“Xamsa” va fors-tojik adabiyoti), N.G‘anixo‘jayeva (“Xamsa”dagi ayrim hikoyatlar haqida”), I.Haqqulov (“Xamsa” badiiyatiga doir) hamda S.Erkinov (“Xamsa” an’analari”)ning tadqiqotlari ham o‘quvchilarni befarq qoldirmaydi.

Umuman olganda, to‘plam “Xamsa” dostonlarining g‘oyalar olami, badiiy xususiyatlari, xarakter yaratishdagi o‘ziga xoslik, voqelik va estetik ideal, an’ananing davom topishi kabi masalalarda kitobxon bilimi va tasavvurlarini boyitadi.

Ad.: *Алишер Навоий “Хамса”си. Масъул муҳаррир: ф.ф.д. А.П.Қаюмов, нашрга тайёрловчи: ф.ф.н. Ғафуржонова Т. – Т., 1986.*

M.A.

“ALISHER NAVOIY “XAMSA”SINI O‘RGANISH MASALALARI” – “Xamsa” yaratilganiga 500 yil to‘lishi munosabati b-n tuzilgan bu to‘plam Samarqand davlat universiteti olimlarining ilmiy maqola va axborotlarini o‘z ichiga oladi. Unda B.Valixo‘jayevning “Alisher Navoiy “Xamsa”si va uning Sharq xalqlari adabiyoti taraqqiyotida tutgan mavqeyi”, N.Shukurovning “Navoiyning ijodiy metodi masalasiga doir (“Xamsa” asosida)”, R.Orzibekovning “Alisher Navoiy “Xamsa”si va o‘zbek poeziyasida nomachilik an’analari”, M.Xolbekovning “Alisher Navoiy “Xamsa”sining fransuz sharqshunosligida o‘rganilishi tarixidan”, Q.Tohirovning “Xamsa”dagi romantik epizodlarniig hayotiy mohiyati” kabi maqolalar o‘rin olgan. To‘plamga bulardan tashqari “Xamsa”ning til xususiyatlari (X.Doniyorov, B.Yo‘ldoshev) “Farhod va Shirin”ning tojikcha tarjimasi (R.Muqimov), “Xamsa”da do‘stlik va internatsionalizm g‘oyalari (J.Hojimatov) va ayollar obrazlari (K.Ahmadjonova), lirik tasvirlarning estetik ahamiyati

(B.Samiyeva) kabi masalalar yuzasidan bahs yurituvchi maqola va axborotlar ham kiritilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик. 6-8-жилдлар. – Т., 2011.*

A.A.

"ALISHER NAVOIYNING FORS-TOJIK TILIDAGI ASARLARI" – taniqli n.shunos Ergashali Shodiyevning N. forsiy merosi tadqiqiga bag'ishlangan risolasi (1990). Unda muallif "Devoni Foniy"ning 3 qo'lyozma (Parij, Istanbul (2) va 2 nashr (Eron, Toshkent) nusxasi hamda shoir forsiy merosidan namunalar kiritilgan tazkira va bayozlarni tadqiqotga jalb etgan holda, N. forsiy merosining umumiy hajmini, janriy tarkibini, ulardagi matniy tafovutlarni aniqlashga harakat qiladi. "Devoni Foniy" qo'lyozmalarining birortasi mukammal emasligini ta'kidlab, bu boradagi izlanishlarni davom ettirish va shoirning forsiy merosini oxirigacha topish kerakligiga e'tibor qaratadi. Shuningdek, kitobda tatabbu' va tatabbu'navislik haqidagi bahslar davom ettiriladi. Ayni paytda, muallif N. Fanoiy taxallusi b-n ham ijod qilgan, forsiy g'azallarida ham ba'zan Navoiy taxallusini qo'llagan kabi munozarali masalalarni ham ilgari suradi. N.ning forsiy qasidalari ustida ham izlanishlar olib borib, ularning umumiy adadi 13 ta ekanini aytadi

Ad.: *Шодиев Э. Алишер Навоийнинг форстожик тилидаги асарлари. – Т., 1990.*

E.O.

ALISHER NAVOIYNING SHOH G'ARIB MIRZOGA MARSIYASI – Sulton Husayn Boyqaroning o'g'li, shahzoda Shoh G'arib mirzo vafoti munosabati b-n tarkibband shaklida yozilgan she'r. Tarkibband haqida prof. H.Sulaymonov "Alisher Navoiyning G'arib mirzo vafotiga atab yozgan marsiyasi" maqolasini yozgan edi. Adabiyotshunos Y.Is'hoqovning yozishicha, "Tarkibband – marsiyaning ikkinchisi faqat "X.M."ning Dushanbeda 1990 raqami ostida saqlanayotgan (904/1499–1500-y.da kitobat qilingan) nusxasida mavjud.". H.Sulaymonov va Y.Is'hoqov bu tarkibband "B.B." devoni tarkibida ekanligini qayd etishgan. Biroq adabiyotshunos D.Yusupovaga ko'ra, "tojikistonlik olim B.Maqsudovning xabar berishi va bizga yuborgan qo'lyozma varaqlari fotonusxasi asosida ma'lum bo'ldiki, tarkibband "Xazoyin ul-maoniy"ning so'nggi devoni – "Favoyid ul-kibar" devoniga kiritilgan ekan. She'r "Marsiya" sarlavhasi ostida so'nggi 650-na't g'azaldan so'ng "Bordim bu sahar..." deb boshlanuvchi mustazoddan oldin keltirilgan. Darhaqiqat, bu tarkib "Favoyid ul-kibar" devoniga mos, chunki kulliyotning fanga ma'lum bo'lgan deyarli barcha nusxalarida ushbu mustazod "Favoyid ul-kibar" tarkibida keladi".

5 band 29 bayt – jami 58 misradan tashkil topgan mazkur marsiyada lirik qahramonning iztirobi, qayg'u-hasrati vasf va hijron kayfiyati b-n parallel tarzda ifodalangan. Bu qahramon haqidagi tasavvurlarni aniqlashtirib, motam sababini kengroq tushunishga imkon beradi. Quyidagi baytda ham talmeh san'ati vositasida G'aribiyning pok axloqi, go'zal fazilatiga e'tibor qaratilgan:

Ul Masiheki ulus jon topar erdi so'zidin,
Bordi-yu xalqni o'z furqatidin qildi halok.

Ma'lumki, G'aribiy yaxshigina shoir bo'lib, devon ham tartib bergan edi. N. "M.N."da bu haqda shunday yozadi: "Shoh G'arib Mirzo – sho'x tablig' va mutasarrif (tasarruf etuvchi, sohib, o'tkir. – izoh bizniki.) zehnlik va nozuk taxayyulluq (fikrli) va daqiq taaqqulluq (fahmli, idroki baland) yigitdur. Nazm va nasrda naziri ma'dum (naziri yo'q, benazir) va mutaxayyila (dunyoqarashi keng) va hofizada adili noma'lum. Ov va qush xotirig'a marg'ub va qurro (Qur'onni qiroat b-n yoddan o'quvchi, qiroatli) va o'qush ko'ngliga mahbub. Bu matla' aningdurkim:

Qaysi bir gulchehra ul
gulbargi xandonimcha bor,
Qaysi bir shamshod qad
sarvi xiromonimcha bor?

Takrir, istiora, tajohuli orif kabi go‘zal badiiy san’atlar b-n ziynatlangan mazkur bayt ham G‘aribiyning iqtidori, shoirlik mahoratini yaqqol ko‘rsatib turibdi.

Marsiyada tashxis va tazod san’atlari vositasida ifodalangan quyidagi fikrlar ana shu – G‘aribiyning shoirlik mahoratiga ishora qiladi:

She’r-u devoni bu motamda qaro aylab yuz,
O‘ylakim so‘z boshi, shingarfi dog‘i qolmay ol.

Quyidagi baytda esa bu yo‘qotishdan shoirlarning ruhiyatida aks etgan qayg‘u va motam kayfiyati jonli ifodalangan:

Shuaro shahrda barcha yaqolar chok aylab,
Tosh urub ko‘ksiga, har yon chekibon vovaylo.

Umuman, Shoh G‘arib mirzoning axloqiy qiyofasi, go‘zal fazilatlari haqida o‘sha davrda yaratilgan boshqa asarlarda ham ma’lumotlar mavjud. Jumladan, “Boburnoma” muallifi u haqida quyidagilarni yozgan: “Yana Shoh G‘arib mirzo edi, bukri edi. Agarchi hay’ati yomon edi, tab’i xo‘bedi. Agarchi badani notavon edi, kalomi marg‘ub edi. “G‘aribiy” taxallus qilur edi, devon ham tartib qilib edi, turkiy va forsiy she’r aytur edi”. Ko‘rinadiki, “Boburnoma”dagi fikrlar “M.N.”dagi ma’lumotlarni to‘ldiradi va tarixiy shaxs haqidagi qarashlarimiz va tasavvurlarimizni boyitishga xizmat qiladi. Marsiyada bu mulohazalar o‘ziga xos tezis shaklida, ammo yuksak badiiyat b-n ifoda topgan.

Marsiyada barchaning motam kayfiyati, qayg‘u-iztirobi badiiy san’atlar vositasida yorqin tasvirlangan. Shoh G‘arib mirzoning ma’naviy dunyosi, insoniy fazilatlari, shoirlik mahorati va atrofdagilarga munosabati ham she’rda hayotiy misollar orqali dalillangan. Har bir so‘z, misra va bandda uning vafotidan motamda bo‘lgan kishilarning ruhiy holati chuqur lirizm b-n ifoda etilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Бобур, Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома. – Т., 2002; Yusupova D. Alisher Navoiyning Shoh G‘arib Mirzoga bag‘ishlangan tarkibband-marsiyasi xususida // “Alisher Navoiy va XXI asr” mavzusidagi xalqaro anjuman materiallari. – T, 2022; Казакбаева Д. Ўзбек муттоз адабиётида таржиъбанд ва таркиббанд жанрларининг такомили. Филол. фан.б. фалс. доктори дисс. – Т, 2022.*

M.A.

ALISHER NAVOIY HAYKALLARI VA HAYKALTAROSHLIK – Haykaltaroshlik san’atida buyuk mutafakkir va shoir N.ning jonli qiyofasini yaratish borasida e’tirofga loyiq ishlar qilingan. Shunday haykallardan biri va eng muhtashami poytaxtning Milliy bog‘ida o‘rnatilgan (1991). Ushbu haykal mualliflari samarqandlik haykaltaroshlar Enulla Aliyev, Nodir Bandeladze, Vasiliy Gegcharevlardir. Bu ulkan san’at asari milliy sharqona uslubda, bronzadan ishlangan bo‘lib, Milliy bog‘ning eng ko‘rkam va baland qismiga joylashtirilgan. Mazkur yodgorlik b-n haykaltaroshlar o‘zbek haykaltaroshligi san’atiga o‘ziga xos yangilik – me’moriy-haykaltaroshlik majmuasini olib kirdilar. San’at asarida buyuk mutafakkir va shoirning fozillik alomatlari o‘z ifodasini topgan. Ramziy ma’noda barpo etilgan me’moriy unsur – gumbaz esa N.ning mahobatli qiyofasini yanada buyuklashtirgan. Haykal mohirona uslubda, yaxlitlik yo‘nalishida bajarilgan, ya’ni mayda bo‘laklarga kamroq e’tibor qaratilgan. Faqatgina ko‘krak va yuz qismida hamda liboslar burmalaridagina ayrim detallar maydaroq ishlanganki, ular orqali mualliflar shoirdagi keksalik alomatlarni yorqin tarzda ochib berishga harakat qilishgan. Uzoq masofadan turib, shoirdagi keksalik alomatlarini hassa vositasida ham idrok etish mumkin. Haykalga yaqinlashgan sari hassadagi bu xususiyatlar ikkinchi darajaga o‘tib, shoirning ma’noli chehrasi, ulug‘vor qiyofasi ko‘zga yaqqol tashlana boshlaydi. Ko‘shk tipidagi me’moriy majmuadan odamlar oldiga peshvoz chiqib kelayotgan N. gavdalantirilib, ko‘shkning gumbaz ostiga mutafakkir shoirning

basharyatga qarata aytgan do‘stlikdan qudratli kuch yo‘q ma’nosini ifodalagan hikmatli so‘zlari turli tillarda o‘yib yozilgan.

Haykaltaroshlik sohasida N. obrazini yaratish o‘ziga xos san’at darajasiga ko‘tarilgan, desak aslo xato bo‘lmaydi, albatta. Yurtimizning ko‘plab shaharlarida ulug‘ shoirga qo‘yilgan haykallar fikrimizning yorqin isbotidir. Jumladan, Chirchiq shahridagi N. haykali A.Rahmatullaev va L.Rabichev (1991)larning yorqin ijod mahsuli sifatida e’tirof etiladi. 2001-y.da Navoiy shahri markazida ulug‘ shoirning 560 yilligi munosabati b-n A.Rahmatullayev va P.Podosinnikov tomonidan yaratilgan 9 metrli haykalning o‘rnatilishi ham tarixiy hodisalardan biri bo‘ldi.

Haykaltaroshlikning mahobatli turida sermahsul asarlar yaratayotgan ijodkorlar orasida akad., O‘zbekiston xalq rassomi, haykaltarosh Ilhom Jabborov va O‘zbekiston xalq rassomi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, Bobur nomidagi xalqaro mukofot laureati, O‘zbekiston Badiiy Akademiyasi a’zosi Ravshan (Jaloliddin) Mirtojievlarning alohida o‘rni bor. Ular tomonidan yaratilgan yodgorliklarni mamlakatimizning aksariyat viloyat va shaharlarida uchratish mumkin. Jumladan, 2016-y.da Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyot universiteti tashkil etilib, uning hovlisida aynan Ilhom Jabborov tomonidan yaratilgan A.N.ning mahobatli haykali o‘rnatildi (5 metr, gips).

Haykaltarosh X.Husniddinxo‘jayev ijodining yorqin namunasi bo‘lgan Samarqand shahridagi “Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy” haykali ham alohida tahsinga loyiq. Bu muhtasham yodgorlik V.Lunev va M.S.Bulatov rahbarligidagi bir guruh me’morlarning o‘zaro ijodiy hamkorligida yaratilgan. Haykal ikki qardosh xalq: o‘zbek b-n tojik xalqining azaliy do‘stlik g‘oyasi ifodasidir. N. haykallarining aksariyati bronzadan ishlangan bo‘lsa, Samarqanddagi haykal qizil granit toshdan yasalgani b-n ulardan farqlanadi. Haykaltaroshlikda granit toshi b-n ishlash anchagina mashaqqatli mehnat talab qilishini ham aytish joiz.

Haykaltaroshlikda N.ning mo‘jaz qiyofasini yaratish, shuningdek, o‘ziga xos san’at ansanblini tiklash borasida ham bir qator ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, P.Chelishev yaratgan “Alisher Navoiy” (1961–1964, gips) byusti va Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on tumanida o‘rnatilgan (1960-yy.da) N. monumenti haykaltaroshlik san’atining go‘zal namunalari sanaladi.

N. haykallari nafaqat yurtimizda, balki jahonning bir necha yirik shaharlarda ham bo‘y ko‘rsatib turibdi. Moskva (2002), Tokio (2004) hamda Boku (2008) shaharlarida o‘rnatilgan N. haykallari mashhur haykaltarosh R.Mirtojiyev tomonidan ishlangan. Vashington shahrida ishlangan haykal esa R.Mirtojiyev maslahat va tavsiyasi asosida bunyod etilgan. N. haykali AQShning Vashington Kutubxonasi Kongressidan joy olgan.

2017-y.da Shanxay universitetida Xitoy va O‘zbekiston o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatilganining 25 yilligi munosabati b-n buyuk o‘zbek shoiri N.ning haykali ochildi. Bronzadan ishlangan haykalning balandligi 3,6 metr, postament (haykal o‘rnatiladigan maxsus supa) esa 1,8 metrga teng. Haykal loyihasini R.Mirtojiyev tayyorlagan bo‘lib, xitoylik haykaltarosh tomonidan yaratilgan.

Darhaqiqat, O‘zbekiston haykaltaroshlari bir necha bor N. obraziga murojaat etganlar, biroq A.Shaymurodov yaratgan obraz xarakterli. Ya’ni haykaltarosh ulug‘ shoir dunyosini tushunishga ko‘p marotaba uringan, uning har galgi faoliyatida komil shaxs siymosi sayqal topib, mumtoz ko‘rinishga kirib borgan. Bular orasida atoqli olim H.Sulaymon tavsiyasiga ko‘ra mashhur musavvir Mahmud Muzahhib asari asosida ishlangan haykal, ayniqsa, diqqatga sazovordir. A.Shaymurodov N.ning mo‘jaz kitobat san’atida tasvirlangan qiyofasini haykaltaroshlikdagi qulaylik – plastik xususiyatlar (nur-soya, hajm va boshqa) yordamida muvaffaqiyatli gavdalantira olgan. Haykal keng jamoatchilik tomonidan e’tirof etildi. U, hatto Moskvadagi nufuzli ko‘rgazmada kumush medal b-n taqdirlandi. Haykalda buyuk mutafakkirning ichki siyrati mohirona talqin etilgan, ayniqsa, yuz tuzilishining nuroniyligi, qosh-ko‘zlarining ma’noli ifodasi haykalta-

rosh tomonidan nozik his qilingan. Haykalda N. ning muborak boshi biroz quyiga indirilgani estetik ta'sirchanlikni yanada oshirgan. Shubhasiz, mazkur san'at asari N. dahosini haykaltaroshlikka ko'chirish borasida erishilgan eng muhim yutuqlardan biridir. Haykaltaroshning 1960-yy. da yaratilgan "Alisher Navoiy" (2 ta: SamDU va Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi, marmar) kabi haykallari ham realistik yo'nalishning milliy sayqallangan namunalaridandir.

M.A.

"ALISHERIY" – qator zamondoshlarining guvohlik berishicha, N. tabiatan chuqur ichki madaniyatli, nihoyatda nozikmijoz, juda pokiza va oliytab', xushmuomala va shirinsuhbat bo'lishidan tashqari, tashqi ko'rinishiga, yurish-turishiga ham jiddiy e'tibor va talabchanlik b-n qaragan, doimo yuqori did-farosat b-n kiyingan va bu jihatdan ham kishilarda havas uyg'otgan. Boburning yozishicha, bu sohada, hatto u qator yangiliklarni taomilga kiritgan – birinchi bo'lib joriy qilgan: "Alisherbekki, qalin nimalar ixtiro' qilib edi va yaxshi nimalar ixtiro qilib edi..." Shu boisidan ham uni qurshagan ziyolilargina emas, balki oddiy kishilar ham kundalik hayotda hamisha unga taqlid qilishga intilganlar, aksariyat Alishercha yurish-turishga, Alishercha kiyinishga, Alishercha muomala-nazokatga harakat qilganlar.

Shoirning obro'-e'tibori shu qadar baland va shuhratli ediki, hatto turli kasb-hunar ahli ham uning nomidan istiloh o'rnida ham foydalanganlar, ayni paytdagi ibora b-n aytganda, shoir nomiga o'z mollariga "reklama" sifatida murojaat qilganlar. "Boburnoma"dagi mana bu parcha xuddi shu jihatdan guvohlik beradi: "... Har kishikim har ishta bir nima paydo qildi, ul nimaning rivoj va ravnaqi uchun "Alisheriy" der edi". Bobur bu bobda ayrim hazil-mutoyibalar bo'lganini so'zlab, misol tariqasida quyidagi ishlarni keltiradi: "Ba'zi zarofat bila Alisherbekka isnod (nisbat berish – A.A.) qilurlar edi. Nechunkim, Alisherbek quloq og'rig'ida yog'liq bog'log'on uchun xotunlar ko'k yog'liqni qiyiq bog'log'onni "nozi Alisheriy" ot qo'ydilar. Bu, jumladin, Binoiy Hiriydin azimat qilur vaqt eshagi uchun polondo'zg'a g'ayri muqarrar polone buyurur, otin "Alisheriy" der, "poloni Alisheriy" mashhur bo'ldi",

"N.Sh."dan o'rin olgan g'azallarning birida yangi rasm joriy qilmoq tushunchasi b-n bog'liq quyidagi yumoristik bayt uchraydi:

Bir ko'rmak-u o'lmak bila, ey xasta Navoiy –
Ishq ahli orasinda yangi rasm kiyurding.

Ad.: *Алишер Навоий. Наводир ушшабоб. ТАТ. 10 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2011; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 2002.*

A.A.

ALISHERNING ONASI – Zamonaviy o'zbek adabiyoti namunalarida N.ning onasiga nisbatan ishlatilgan mashhur atama, sifatlash. N. asarlari matnida va uning hayoti, ijodi, u yashagan davr b-n bog'liq adabiy-tarixiy manbalarda uning onasining ismi qayd etilmagan. Shuning u-n zamonaviy o'zbek adabiyotida N.ga bag'ishlab yozilgan lirik, nasriy va dramatik asarlarda N. onasining ismi o'rnida ko'proq *Alisherning onasi* atamasi ishlatiladi. Butun madaniyat va ma'rifat olamida hanuzgacha Abu Said Changning qizi, G'iyosiddin Bahodirning sevimli rafiqasi, o'z davrida tanilib ulgurgan shoirlar Mirsaid Kobuliy, Muhammadali G'aribiyning fidoiy opasi, ulug' mutafakkir N.ning aziz onalari ismiga qiziqish yo'qolgani yo'q. Xalqimizning, deyarli, barcha olim-u fuzalolari, adib shoirlari bu ulug' ona ismiga qiziqishgan. Oybek "Bola Alisher" qissasida Gulbeka ismi b-n tilga olgan, O'zbekiston Qahramoni A.Oripov "Alisherning onasi" nomli she'r yozgan va she'rda mushfiq va mushtipar, xokisor ona siymosini yaratgan.

Unda A.Oripov *Alisherning onasi, Navoiyning onasi* deb mahorat b-n talqin qilgan. Lidiya Bat "Hayot bo'stoni" romanida *Alisherning onasi* shaklida tilga olgan. Yozuvchi Muhammad Ali esa "Navoiy" romanida N. onasining sharafli

nomini Qutlug‘ Beka tarzida keltirgan va tarixiy haqiqat va badiiy to‘qimani me’yorida tasvirlashga harakat qilgan.

Manbalarning guvohlik berishicha, Alisherning onasi “samo ichra yana bir samo” deb e’tirof etilgan Ulug‘bek mirzoning onasi, malika Gavharshodbegimning ma’rifiy yig‘inlarida ishtirok etgan. Shu xotiralari fonida N. Gavharshodbegimni “V.”da tilga olgan.

N. o‘z asarlarida yaratgan onalar siymosida, onalar tilidan bitilgan duo va istaklarida volidasining fazilat-u sifatlarini, nasihat so‘zlarini badiiy talqin qilgan.

N. asarlarida onasini *volida* deb keltirganiga guvoh bo‘lamiz. “N.M.”ning “Mavlono Lutfiy” fiqrasida ham onasi haqida gap bor. Ya’ni ustozi Lutfiy tilidan onasiga qanday muomala qilish borasida o‘git aytgani haqida gapirgan: “Bu faqir borasig‘a ko‘p iltifoti bor erdi va fotihalar o‘qur erdi va doim volida mulozamatig‘a va rizoye xotirig‘a targ‘ib qilur erdi”. Yoki “M.N.”ning Ali Yazdiyga bag‘ishlangan fiqrasida bola Alisher Ali Yazdiy b-n suhbat qurar ekan, fiqrada otasi qatorida onasi ham tilga olingan: “...sening uchun fotiha o‘quli deb o‘z fotihalarig‘a musharraf qildilar. Hamul zamon faqirning volidi va ul xayl ulug‘lari kelib, Mavlono xizmatida anvoi niyozmandlig‘lar qilg‘ondin so‘ngra, faqirg‘a andoq shuur hosil bo‘ldi angakim, “ne kishi erkandurlar”.

Bu haqda B.Rajabova “Alisherning onasi” nomli maqola yozgan

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Ражабова Р. Алишернинг онаси. Муштарак адабий ҳодисалар. – Т., 2019.*

B.R.

ALLOH (OLLOH) – islom dinida butun koinotni, undagi eng kichik zarradan tortib, eng ulkan mavjudotgacha yaratgan yagona va boqiy Zot.

Alloh lafzi “alaha” fe’lidan olingan va “iloh” masdariga mansub bo‘lib, ma’bud – ibodat qilingan Zot ma’nosini anglatadi. Arablarda “iloh”-ning avvaliga aniqlik artikli bo‘lgan “alif” va “lom” harflari kiritilgan va “al-ilohu” hosil bo‘lgan. So‘ngra hamzaning harakati oldingi lom harfiga o‘tkazilgan va ikki “lom”harfi yonmayon kelgandan keyin ular idg‘om qilinib, ya’ni qo‘shilib “Alloh” lafzi hosil bo‘lgan. Ba’zi olimlar “Alloh” lafzi yakka-yu yagona Ma’budi barhaqning o‘ziga xos ismdir, u boshqa biror so‘zdan olinmagan deyishgan. Bu ism U Zotdan boshqaga ishlatilmaydi. Asmoyi husnadagi barcha ismlar Allohning sifatlariga dalolat qiladi, ammo birgina Alloh lafzi uning o‘z Zotiga dalolat qiladi. Allohning barcha ismlari ana shu Alloh kalimasida jamlangandir. Ba’zi ulamolar, Alloh ismi a’zamdir, deganlar. Bu lafzi jalola haqida ayrim olimlar alohida kitob yozgan.

Qur’oni Karim va hadisi shariflarda, shuningdek, aqidaga oid kitoblarda Allohning zoti, ism va sifatlari haqida batafsil bayon qilingan. Qur’onda Allohning 99 ismi kelgan va ular “asmoyi husna” (go‘zal ismlar”) deb ataladi va har bir ism Allohning o‘ziga xos sifati, kuch-qudrati, yagonaligi, xohlaganini qiluvchi, azaliy va abadiy ekani, tug‘ilmagan va tug‘dirmagan, hech narsaga muhtoj emasligi, hammani rizqlantiruvchi, behojat, sherigi yo‘q, tengsiz, qazo-yu qadarni belgilovchi, hammani dunyoga keltiruvchi, yashatuvchi, o‘ldirib, tiriltirguvchi, jannat va do‘zaxga soluvchi va boshqa bir qator sifatlarga sohib mangu barhayot Zot ekaniga dalolat qiladi.

Aksar diniy kitoblarimizda Allohning sakkizta subutiy sifatlari keltiriladi. Ular: ilm – Alloh taolo hamma narsani biluvchi; hayot – Alloh taolo abadiy va azaliy tirik Zot; qudrat – Alloh taolo har narsaga qodir; sam’ – Alloh taolo eshituvchi; basar – Alloh taolo ko‘ruvchi; kalom – Alloh taolo gapiruvchi; iroda – Alloh taolo har narsani o‘zi ixtiyor qiluvchi; takvin – Alloh taolo paydo qiluvchi. Uning yana ikkita sifati xususida ko‘p to‘xtalinadi. Ular: Alloh taolo barcha ayb-u nuqsonlardan pokdir; Alloh taoloning sherigi yo‘qdir.

N. “S.M.” asarida Xudovandning “misli va monandi” yo‘qligi, “budu nobud”ni yaratgan ya-

gona Tangri ekanligini aytib, uning yuqorida keltirilgan sakkiz sifatini bir-bir bayon qiladi:

Yana sekkiz sifatqa mu'taqid bo'l,
Alardin har biriga ko'rguzay yo'l.

Kim ul sekkiz erur Haqning sifoti
Ki, boridin munazzah qildi zoti.

Erur Hayyu Alim-u yana Qodir,
Murid-u ham sami' o'ldivu nozir.

Takallum vasfig'a dag'i muvofiq,
Yana ibod af'olig'a Xoliq.

Ne bor aning shariki, ne vaziri,
Ne bor aning sahimi, ne naziri.

Ne javhar, ne arazdur, ne makonda,
Ne voqe'dur jihatda, ne zamonda.

Chu ermas anga hech ashyo mushobih,
Aning sha'nindadur: "Laysakamislih".

Qadim o'ldi kalomi, dag'i olam,
Erur hodis dedim bu so'zni fafham.

N.ning hamd va munojotlarida Allohning ulug'ligi va sifatlari tilga olinadi, shu b-n birga lirik qahramonning tavba-tazarrulari, yolvorishlari, gunohlarining afv etilishi Haqdan so'raladi. Inson agarchi payg'ambar bo'lsa ham, har qancha orif bo'lsa ham, Allohning mohiyatiga yetolmaydi. N. buni shunday ifodalagan:

Bo'lub zotingda ojiz har sifat ichinda mavsufe,
Aningdekkim, qila olmay sifoting sharhini zote.

Xirad zotingda tashbih etkali har fikrkim aylab,
Takallum anda yo'l topmay magar
hayhot-hayhote.

"Ilmning avvali (boshi) ma'rifatulloh (Allohni bilish, tanish)" hadisiga binoan mo'min-musulmon kishi Allohga iymon keltirgandan keyin, avvalo, U Zotni dinimiz ta'lim berganidek tanishi va bilishi kerak. Shuningdek, hadisda Allohni Zoti haqida emas, yaratiqlari haqida tafakkur qilishga buyurilgan. Chunki inson Allohning Zotini tafakkur qilgan b-n uni tasavvur qilolmaydi, aksincha, turli xayollar, vasvasalar b-n adashishi, hatto kufrga ketishi mumkin. Qur'onda Alloh O'zining yaratgan narsalarini ko'rib tafakkur qilishga, aql yuritishga va O'ziga iymon keltirib, buyruq va taqiqlariga amal qilishga undaydi. Allohni bu dunyoda ko'rib bo'lmaydi, oxiratda jannatga kirgandan so'ng ko'ra oladi. Hujjat ulislom Imom Muhammad G'azzoliy (1058-1111) yozadiki: "U ko'zlar ila ko'rsa bo'ladigan Zotdir. Qiyomat kunida yaxshilarga U tarafidan lutf va ne'matlar (jannat) yetadi. Ne'matlarining eng mukammali karamli Parvardigorga nazar solmoq (jamolini ko'rmoq)dir!"

N. asarlarida Alloh so'zining muqobili sifatida arabcha Rab, forscha Xudo, Parvardigor, Kirdigor, Haq, Ezid, Yazdon, turkcha Tengri kabi so'zlarni qo'llagan. N. "X." dostonlari, devoni va boshqa asarlarining hamd va munojot qismlarida Allohning zoti, fe'llari va sifatlarini mukammal bir din olimi o'laroq she'riy tarzda bir-bir zikr qilib o'tadi. Ulug' shoir Allohning yagonaligi, yaratuvchiligi va qodirligi kabi sifatlarini oddiy bayon qilmasdan, Unga bo'lgan komil iymon-e'tiqodini, orzu va armonlarini, tavba va tazarrularini samimiy va ayni paytda shoirona his-hayajon b-n bayon qilib o'tadi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, N. asarlarida Alloh madhi, sifatlari ikki xil vosita, ikki xil uslub b-n ifoda etilgan:

1. Shar'iy-e'tiqodiy kitoblarga muvofiq Alloh sifatlarining ta'rif etilishi: M-n, Allohning 99 ism-u sifatlaridan **al-Avval** (har borliqdan avval bo'lgan, borlig'ining avvali (boshlanishi) bo'lmagan Zot;), **al-Oxir** (eng so'ng qolguvchi, borlig'ining oxiri bo'lmagan, borlig'i doimiy-abadiy bo'lgan Zot), **al-Xoliq** (hamma narsani yo'qdan bor qiluvchi, yaratuvchi), **al-Boqiy** (abadiy bo'lgan, borlig'ining oxiri bo'lmagan Zot) kabi sifatlari quyidagi baytlarda ko'zga tashlanadi:

Ey sanga mabda'da abaddek azal,
Zoti qadiming abadiy lam'yazal.

Ne bo'lub avvalda bidoyat sanga,
Ne kelib oxirda nihoyat sanga.

Avval o'zung, oxir-u mobayn o'zung,
Borchag'a xoliq, borig'a ayn o'zung.

N. "H.A."ning uchinchi munojotida dunyo va unda odamzotning eng mukarram xilqat sifatida yaratilganini ta'kidlab, bu falakda va bu olamda har bir narsaning hisob-kitob b-n yaratilgani **al-Musavvir** (har bir mavjudotni turli shakllarda yaratuvchi, har biriga alohida shakl va xususiyat (tasvir va ziynat) beruvchi Zot), **al-Boriy** (ashyoning va hamma narsaning qismlarini-parchalarini o'xshashsiz, bir-biriga muvofiq va ayb-u nuqsonsiz bir ko'rinishda yaratuvchi Zot) kabi ismlarining tajalliy etgani quyidagi baytlarda ko'zga tashlanadi:

Qatrag'acha qulzumi zahhordin,
Zarrag'acha shamsayi zarkordin,

Oni munga, muni anga band etib,
Bir-biriga borchani payvand etib,

Vositalar bo'ldi ayon to'-bato',
Bir-biriga bog'lanibon mo'-bamo'.

To tikilib ushbu binik borgoh,
Bo'ldi muhayyo bu ulug' korgoh.

N. Allohga iymon keltirish haqida to'xtalib ta'kidlaydiki, Allohning zoti, har qanday ayb-u nuqsondan pok, hech bir narsaga o'xshamagan, abadiy va azaliydir. Garchi, Allohning Zoti ko'zlardan pinhon bo'lsa ham, dunyoning hikmat b-n yaratilgan ashyolari uning ism va sifatlarini oshkor qilib turadi. Barchani bor qiluvchi ham yo'q qiluvchi ham uning O'zidir!

Borcha jahon ahlig'a zoti nihon,
Mazhari asmo-yu sifoti jahon.

Borchani ham, qilg'uchi nobud o'zi.
Borcha borib, bo'lg'uchi mavjud o'zi.

2. Tasavvufiy timsol va majozlar vositasida Alloh sifatlarining madh etilishi:

Aksar tasavvufiy ruhdagi g'azallarda Allohning zot va sifatlari, ishq iztiroblari, oshiq va ma'shuqlik munosabatlari yor, may, soqiy, qadah, ma'shuq, gul, bulbul, zulf, xol, xat, la'l, husn, jamol kabi so'fiyona timsol va majoziy tasvirlar vositasida ta'riflanadi. Majoz uslubi vositasida haqiqat ma'nolari yuzaga chiqadi. Tashqaridan qaraganda, bunday g'azallar shariatga ziddek tuyilishi mumkin. Aslida bunday emas. Ma'noni to'g'ri anglash u-n faqat baytdagi timsol, tashbeh va istioralarning tasavvufiy, botiniy, majoziy ma'nolarda talqin qilish kerak. "G'.S."-dagi dastlabki baytlar fikrimizga misol bo'ladi:

Ashraqat min aksi shamsil-ka'si anvorul-hudo,
"Yor aksin mayda ko'r" deb, jomdin chiqti sado.

G'ayr naqshidin ko'ngul jomida
bo'lsa zangi g'am,
Yo'qtur, ey soqiy, mayi vahdat
masallik g'amzudo.

Baytda ishtirok etgan yor, soqiy, may va qadah so'zlari tasavvufiy atama o'laroq o'z ma'nosida emas, majoziy mazmunda yor – Alloh, soqiy – murshid, may – ishq, qadah – qalb, ko'ngil – ishq mazhari kabi ma'nolarni anglatib kelmoqda. Mazkur baytlarda oshiq qalbida sof ilohiy ishqning tajalliy etish shartlari, jarayonlari va holatlari ifoda etilgan. G'azalning keyingi baytlarida tasavvufiy timsol va ma'nolarning yanada murakkab va uyg'un shaklda davom etganini ko'ramiz.

N.ning g'azallaridan ma'lum bo'ladiki, Alloh dunyodagi barcha go'zallikning va ishq-u muhabbatning manbayidir. Butun koinotning asosida ilohiy ishq-u muhabbat yotadi. Yer va osmonda Tangri yaratgan har bir narsa borki, Unga intilib yashaydi, Uning ishqi va zikri b-n orom oladi. Har bir zarra Uni zikr qilgani kabi yomg'irning har bir tomchisi Unga hamd aytadi:

Zarrot aro har zarraki bor, zikringa zokir,
Amtor aro har qatraki, bor, hamdinga go‘yo.

Uning beqiyos husni zuhuridan, ilohiy jamolning tajalliy etishidan har bir kishining boshida bir savdo va bu savdo natijasida ikki dunyo bozorida “yuz g‘avg‘o” yuzaga keladi. N. “Men (Alloh) bir yashirin xazina edim, o‘zimni tanitmoq u-n butun maxluqotni yaratdim”, degan hadisi qudsiyga bir necha o‘rinda ishora qiladi. Bu dunyoni “mazohir” ya’ni ilohiy qudrat va go‘zallikni oshkor qiluvchi xos “ko‘zgu”lar makoni sifatida ta’riflaydi:

Zihe zuhuri jamoling quyosh kebi paydo,
Yuzung quyoshig‘a zarroti kavn o‘lub shaydo.

Yuzung ziyosidin ar subh ayni ichra bayoz,
Soching qarosidin ar shom boshida savdo,

Zuhuri husnung uchun aylabon mazohirni,
Bu kuzgularda ani jilvagar qilib amdo.

Haq jonli va jonsiz ashyolarga tajalliy etgani u-n ham narsalar o‘rtasida ishq va oshiqlik, mehr va muhabbat rishtalari paydo bo‘ladi. Koinotda o‘zaro bog‘liq bo‘lgan narsalar borki, Allohning ishqi, fayzi va nuridan bahramand holda bir-biriga talpinib yashaydi. Shu o‘rinda ishqning qudrati va jozibakorligi anglashiladi:

Ravshandururki, mehr yuzungdin olur safo,
Yo‘qsa, ne vajh ila qamar andin topar ziyo.

G‘arqi muhiti ishqing edi jon ila ko‘ngul,
Ul damki ruh emas edi tan birla oshno.

Gulda yuzung latofatidin range ko‘rmasa,
Bulbulg‘a ne edi bu fig‘on birla, bu navo?

N. she’riyatida Allohning zot-u sifatlari, U b-n olam va odam o‘rtasidagi munosabatlar, ayni paytda butun mavjudot orasidagi o‘zaro mustahkam aloqalar – majoziy va haqiqiy ishq vositasida o‘z ifodasini topadi. Kitobxon bu mazmundagi g‘azallarni usluban va mazmunan farqlashi, oyat va hadislar, tasavvufiy bilim va timsollar asosida anglashi va tahlil qilishi kerak bo‘ladi

Ad.: *Алишер Навоий. ТАТ. 10 жилдлик, 1-10-жилдлар. – Т., 2011; Абу Ҳомид ал-Газзолий. ал-Арбаъин фий усул ад-дин. – Дамашқ: Дор ал-қалам, 2003. – Б; Турсун Аҳмад, Жуман М.Ш. Ислом дини. – Т., 2013; Сўфи Оллоҳёр. Маслак ул-муттақин. – Т., 2012; Абдулқодир Абдураҳим ўғли. Ақоид дарслиги – Т., 2007.*

S.R.

ALOUDDIN G‘IJDUVONIY (1336–1428, Buxoro) – Bahouddin Naqshbandning uchinchi xalifasi, naqshbandiya tariqatining o‘z davridagi yetuk piri murshidi. A.G‘. o‘n olti yoshlarida Sayyid Amir Kulolning xalifasi bo‘lgan hazrat Amiri Kalon Vosho‘yiga murid bo‘lib, zikri xufya ta’limini oladi. A.G‘. keyinroq ayni yigitlik pallasida hazrat Bahouddin Naqshbandga murid bo‘lib, u kishining nazariga tushadi. Hazrat Bahouddin Naqshband vafot etganidan so‘ng Xoja Muhammad Porsoga murid bo‘ladi. N. “N.M.” kitobida A.G‘.ning Bahouddin Naqshbandning as’hoblaridan ekani va hazrat Bahouddin u kishini Xoja Muhammad Porso suhbatiga borishini amr qilgani, “Va azim istig‘roqi bo‘lgani va bag‘oyat shirintakallum ekani” haqida xabar beradi. Demak, Xoja A.G‘. kuchli istig‘roq holati va shirin so‘zlari b-n suhbatdoshlari qalbini zabt eta olgan. Gohida so‘z aytish asnosida “o‘zdin g‘oyib bo‘lur ermish”. Xoja Muhammad Porso muborak haj safariga otlanganida, qarib qolgan A.G‘.ni ham o‘zi b-n birga hamroh qilib oladi. Shunda Samarqand akobirlaridan biri Xoja Alouddin “bag‘oyat qari va zaif” bo‘lgan, qo‘lidan hech ish kelmaydi. Uni qo‘yib ketsangiz bo‘lardi, deydi. Xoja Muhammad Porso: u b-n biror ishimiz yo‘q. Faqat qachon uni ko‘rsak, “xojalar nisbati xotirg‘a” keladi, deb aytadi.

Ali Safiyning “Rashahot” asarida keltirilishicha, 22 yashar Xoja Ahror Valiy (1404–1490) Samarqanddan 90 yoshli A.G‘. b-n uchrashish, xizmatini qilish, bilmagan narsalarini so‘rash u-n Buxoroga kelgan. Xoja Ahror A.G‘. b-n bir ne-

cha kun suhbat qilgan. Bir suhbatdan keyin A.G‘. unga Xoja Ali ar-Romitaniyning ushbu ruboiysini o‘qib beradi:

Bo har ki nishastivu nashud jam’ dilat,
V-az o‘ naramid zahmati obu gilat.
Az suhbati vay agar tabarro nakuni,
Hargiz nakunad ruhi Azizon bihilat.

Tarj.:

Birov bilan suhbat etding, har safar,
Qalbing g‘ash bo‘ldi yu, suhbat besamar.
Azizonning ruhi kechirmas seni,
Undaylar yonidan qochmasang agar.

Xoja Ahror A.G‘.dan ko‘p narsani o‘rganadi va irshod xati olib, yurtiga qaytadi. Manbalarda A.G‘.ning hikmatli so‘zlari keltirilgan. Jumladan: “Vaqt azizlari(tirik azizlar) agarchi o‘tgan ulug‘larning martabalarida bo‘la olmasalar-da, ularning suhbati ham g‘animat”. Va yana murshidi Bahouddin Naqshbandning: “Akobirlar oytibdurlar: Gurbayi zinda beh az sheri murda, ya’ni tirik pishak o‘lgan sherdin yaxshi turur”, masalini aytib, o‘tgan ulug‘ zotlar har qancha aziz bo‘lsalar ham, tiriklarning ishi tiriklar b-n amalga oshishini eslatib o‘tadi.

Hazrat A.G‘. Buxorodagi mashhur Namozgoh masjidi janubida joylashgan Filmarza qishlog‘idagi Tal (tepalik) ustiga dafn qilingan.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Фахруддин Али Сафий. Рашаҳоту айнил ҳаёт. – Т., 2004.*

S.R.

ALYASA’ (a.s.) – Qur’onda nomi alohida emas, bir necha payg‘ambarlar qatorida zikr qilingan tarixiy shaxs. N.ning yozishicha, u Bani Isroil payg‘ambarlaridandir. Otasini Axtub der edi. Alyasa’ning kasbi dehqonchilik edi. A. (a.s.) Ilyos (a.s.)ning amakivachchasi bo‘lgan. Allohning amri b-n Ilyos (a.s.) uning tarbiyasi b-n mashg‘ul bo‘ladi. Muddat yetganda bani Isroilni Haq taologa da’vat etgan. Undan ko‘pgina mo‘jizalar sodir bo‘lgan. Bani Isroil uning ba’zi mo‘jizalarga ishonib, ayrimlarini yolg‘onga chiqarar edi. Shu jumladan, biri buki, birovning uyiga mehmon bo‘ldi va ul mezboniga farzand orzusi erdi va bo‘lmas erdi. Uning duosi bila Tengri taolo mezbonga farzand berdi. Ittifoqo, o‘sha farzandga bir necha vaqtdin so‘ngra ajal yetishdi. Yana uning duosi b-n mazkur bolaning ruhi badanig‘a kirib, ko‘p vaqt yashadi. Bu xil mo‘jizalari ko‘pdir. Garchi bu kabi bir qator mo‘jizalar ko‘rsatsa-da, bani Isroil ba’zida unga ishonar, ba’zida esa yolg‘onchiga chiqarardi. Oxiri A. (a.s.)ning xotiri mazkur o‘z qavmidan bezib, Zul-kiflni o‘rniga tayinlab, munojot qilib, Alloh taologa vosil bo‘ldi. Oxirat istab qilgan duosini Alloh taolo ijobat qildi. N. qissa so‘ngida A. (a.s.) ham Ilyos (a.s.) kabi sarkash xalqidan qochib ketganiga quyidagi misralarda ishora qilgan:

Ilyos chu Alyasa’ni voliy yetti,
Haqdin anga anvori nubuvvat yetti.

Gar ul qochib el malolatidin ketti,
Ul ketgondek bu dog‘i ketmay netti.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Носируддин Бурҳониддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. – Т., 2009; Пайғамбарлар тарихи (Исломият тарихи). – Т., 2014.*

S.R.

ALQOB I – hukmdor, lashkarboshi, davlat arbobi va boshqa yuqori martabali shaxslarning rasmiy laqab va unvonlari. Musulmon Sharqi davlatlarida unvon va laqablar berishning o‘z maxsus qoidalari (garchi ular hamma davrlarda ham birdek saqlanmagan, ayrim vaqtlarda buzilgan bo‘lsa ham) mavjud edi.

A. temuriylar davrida ham bo‘lgan. O‘sha vaqtga oid rasmiy yozishma va hujjatlarda bek, vazir va boshqa oliynasab kishilarning A.i keltirilganini ko‘rish mumkin. A. shaxsning o‘sha

vaqtdagi mansabi, mavqeyi va maqomiga qarab o‘zgarib turgan. Ma’lumki, N. Husayn Boyqaro davlatida ulkan mavqe va nufuzga ega edi. Shu sababli uning A.i anchagina dabdabali bo‘lgan. Tarixchi Mirxond XV asr 80-yy. oxirida, ya’ni N. Astroboddan qaytgandan so‘ng uning A.i quyidagicha ekanini qayd etgan: “Janobi hidoyatmaob, maoli oyot, zubdayi arbobi din-u davlat, quvvati as’hobi mulk-u millat, e’timod ad-davlati xoqoniy, muqarrabi hazrati sultoniy, nizom ul-haqiqat va-d-din amir Alisher *(ya’ni, hidoyat egasi, sharaf va hurmatning qaytish joyi, din-u davlat arboblarining sarasi, mulk-u millat egalarining yetakchisi, xayr-u ehsonlarni ta’sis qiluvchi, xayr-u ehson muassasalariga ravnaq beruvchi, saltanat ustuni, podshohlarning qo‘lidan yetaklovchi, xoqon davlatining ishonchi, sulton hazratlarining yaqin do‘sti, haqiqat va din nizomi amir Alisher)”*.

Ad.: *Эргашев Қ. Услубнинг шаклланишида давр билан боғлиқ омиллар // ЎТА, 2005, № 1.*

Q.E.

ALQOB II – rasmiy insholar, maktublarning tarkibiy qismi. O‘rta asrlarda, shu jumladan, N. davrida ham rasmiy yozishmalarda muxotab (adresat)ning to‘liq A.i (rasmiy laqab va unvonlari) keltirilishi shart, deb hisoblangan. Shu sababli A. rasmiy insholar va maktublarning zaruriy, tarkibiy qismiga aylangan. Maktublarning A. qismi ikki turli bo‘lib, ularning birinchi turida adresatning laqablari, unvonlari b-n birga uning oti ham ko‘rsatilgan. Ikkinchi turida esa adresat oti tilga olinmagan, lekin keltirilgan laqab, unvonlar orqali uning kimligini bilib olish mumkin bo‘lgan.

O‘rta asr jamiyatining yuqori tabaqalari orasida o‘zaro munosabatlarda takallufning haddan ortishi, mansabdor va asilzodalarga xos shuhratparastlik, izzattalablik, xushomadgo‘ylik kabi holatlar ham A.ga o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Buning natijasi o‘laroq, maktublarning A. qismi dabdabali va uzundan uzoq bo‘lib ketganini, ayrim hollarda maktublarning uchdan bir yoki ortiqroq qismini ham tashkil etganini ko‘rish mumkin. Shu b-n birga adresatning shaxsi va faoliyatiga munosib va mos bo‘lgan, uning xizmatlarining haqli e’tirofini ifoda etuvchi A.lar ham mavjud. N.ga yo‘llangan rasmiy maktublarning A. qismi ana shuning yorqin misolidir. 1499-y. da N.ning haj ziyoratiga borish u-n ruxsat so‘rab yozgan xatiga Sulton Husayn Boyqaro javob maktubi bitgan. Maktub fors tilida bo‘lib, uning A. qismining tarjimasi quyidagicha: “Saltanat ustuni, mamlakat tayanchi, din-u davlat arbobining zubdasi, mulk-u millat as’hobining peshvosi, xayrli binolar muassisi, pokiza ishlarga yo‘llangan xoqoniy davlatning madadkori, Sulton hazratlarining yaqini Nizomiddin amir Alisher janoblariga...” (Tarjima “Navoiy zamondoshlari xotirasida” kitobidan olindi).

Ad.: *Эргашев Қ. Ўзбек насрида иншо. – Т., 2011; Эргашев Қ. Услубнинг шаклланишида давр б-н боғлиқ омиллар // ЎТА, 2005, № 1; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985.*

Q.E.

AMAL (ar.– 1. Umid, istak, tilak, orzu; 2. Ish, harakat, ijro; mansab; kuy, ashula, ijro, ohang) – islomda din hukmlariga va aqidalariga ishonishdan tashqari, dindor o‘z faoliyati va harakati b-n bajaradigan barcha ishlarni ifoda etuvchi tushuncha. A. umumiy ma’noda diniy marosim va urf-odatlar b-n bog‘liq vazifalarni o‘z ichiga oladi. Qur’oni Karimda A. ko‘p suralarda keladi. Bunda musulmonlar tomonidan bajariladigan savobli ishlar ham, gunoh ishlar ham, shuningdek, shayton tarafidan qilinadigan vasvasa va zararli ishlar ham tushuniladi.

N. asarlarida A.ning diniy mazmuniga ko‘p e’tibor qaratgan. Uningcha, inson yaxshi A.lar b-n ikki dunyo saodatiga erishadi, gunoh ishlar b-n esa dunyo va oxiratda xor-u rasvo bo‘ladi. Xususan, ilm o‘qib, amal qilmaganlarni qattiq tanqid qiladi.

N. “M.Q.”da fosiq olim va baxil g‘aniy (boy, badavlat kishi)ning umrini zoye qilgani hamda go‘rga hasrat va armon b-n ketishini ta’kidlaydi. Chunki: “Biri ulkim, ilm o‘rganurga ranj tortti-

yu amal qilmadi, biri ulkim, mol yig‘arg‘a emgak chekti-yu sarf qilurin bilmadi”. Qit’a:

Olimekim, ilmi erdi beamal,
Yo g‘aniykim, molig‘a buxl erdi yor.
O‘ldilar yuz hasrat-u armon bila,
Elga bo‘ldi ishlaridin e’tibor.

N. boshqa bir tanbihida ham xayr-u ehson qilmagan badavlat kishini – yomg‘irsiz bulutga va amalsiz olimni ustiga kitob ortilgan eshakka o‘xshatadi: “Xayrsiz g‘aniy – yog‘insiz sahob va amalsiz olim – dobbaki anga yuklagaylar kitob”.

N.asarlarida A. ahli – Amaldor; A. hirsi – A.ga berilish; A. muflislig‘i – Yaxshi ishlar yo‘qligi kabi ma’nolarda kelgan.

A. mazra’ deganda, maqsad, istak ekini; orzu maylini nazarda tutgan:

Amal mazra’in ekkali berma yer,
Havovu havas xirmanin yelga ber.

A.ning kuy, ashula, ohang ma’nolarini inobatga olsak, Amal ahli – kuy bog‘lovchi; Amal-u qavl – kuy-ohang ma’nolarini bildiradi:

Arg‘anun savti-yu noqus uni birla har yon,
Yuz mug‘ona amal-u qavl ila g‘avg‘o erdi.

N. asarlarida solih, yaxshi amallarni targ‘ib qilgan, yomon va gunoh ishlardan qaytargan va shu b-n ezgulikka, yaxshilikka da’vat qilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик, 3-жилд. – Т., 2011; Ислом энциклопедияси. – Т., 2017.*

S.R.

AMIN (ar.) – 1. Vakil, ishonchli, sadoqatli. 2. Omonatni saqlovchi, kafil. Tasavvufda avliyoulloh darajalaridan biri: ilohiy sirlardan ogoh inson.

N. “N.M.” muqaddimasida shunday yozadi: “Haq subhonahu va taolo maxluqotda bani odamdin sharifroq va biyikroq xalq qilmaydur, nevchunki, ma’rifatulloh ganjining amini va mahrami uldur”. Ulug‘ shoir she’riyatida ham A. so‘ziga ko‘p murojaat qilingan. M-n:

Ey Navoiy, chorayi dardingni qilg‘ay ulki bor
Ham rasul-u ham amin, ham mustafo,
ham mujtabo.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва таъбироти ирфоний. – Теҳрон, 1370 (ҳ.-ш.).*

M.A.

AMIN Umariy (1913, Qo‘qon – 1942, Toshkent) – shoir, dramaturg, tarjimon. A.U. N. tavalludining 500 yilligi munosabati b-n Sh.Huseynzoda b-n hamkorlikda ulug‘ shoirning “L.M.” dostoni nasriy bayonini yaratgan (1941; 1949). Nasriy bayon asarning asl matni b-n birga nashr etilgan (bir sahifada asl matn, ikkinchi sahifada nasriy bayon).

Ad.: *Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1-жилд. – Т., 2000; Комилов Н. Хизр чашмаси. – Т., 2005.*

E.O.

AMINZODA Muhiddin (1904 – Xo‘jand (Tojikiston Respublikasi) – 1966) – tojik shoiri va tarjimoni. Tojikiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan san’at xodimi. A.M. “She’rlar” (1935), “Chaman” (1937), “Vatan bahori” (1940), “Zafar sadosi” (1944), “Tanlangan she’rlar” (1948, 1949, 1952, 1954, 1959), “Dil bahori” (1964) she’riy to‘plamlari chop qilingan. Ijodida hajviy asarlar ham katta o‘rin tutadi. Viloyat gazetasida “Ambo‘r” (“Ari”) hajviy ruknini tashkil etgan. A.M. 50 dan ziyod kuy, duet va laparlar ham ijod qilgan. Bir necha musiqali dramalar yozgan.

A.M. zabardast mutarjim hisoblanadi. U N. ning “F.Sh.” dostonini tojik tiliga mahorat b-n tarjima qilgan.

A.M. ekviritmikaviy tarjima ustalaridan hisoblanadi – u har bir asarni o‘z vazni va ohangini

saqlagan holda tarjima qiladi. Jumladan, “F.Sh.”ni ham u yozilgan hazaji musaddasi maqsur (mafoiylun mafoiylun mafoil) vaznining o‘zida o‘giradi:

Jabinlar gulgul-u kipriklari xor,
Qaboqlar keng-keng-u og‘izlari tor.

Tarj.:

Jabinho gulgul-u chun xor mujgon,
Dahontangon, vale sinafaroxon.

Mohir mutarjim muallif uslubi va asarda qo‘llangan badiiy san’atlarni ham tarjimada aks ettirishga muvaffaq bo‘lgan. Lekin A. M. XX asrning 50-yy.ida 1740 bayt hajmida mahorat b-n tojik tiliga o‘girgan “F.Sh.”ni dahriylikka asoslangan tuzum mafkurasi tufayli dostonning an’anaviy hamd, na’t, munojot boblarini tushirib qoldirib, dostonni “Qalam vasfida bir necha nukta surmak...” sarlavhasi b-n boshlanadigan 6-bobidan boshlaydi va asosan asar syujeti izidan boradi.

Tarjima tojik shoiri va dramaturgi Fayzullo Ansoriy tomonidan tahrir qilingan. N.ning “F.Sh.” dostoni tarjimasi G‘.Salomov, S.Olimov kabi tarjimashunoslar tomonidan tadqiq etilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. Таржумаи тожикии Аминзода М. – Душанбе, 1958; 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988; Саломов Ғ. Таржима назариясига кириш. – Т., 1978; Олимов С. Алишер Навоий асарлари таржимасида бадиий санъатларни қайта яратиш ва табдил этиш муаммолари. НД. – Т., 1985.*

E.O.

AMIR – 1. Hukmdorlar, podshohlarning unvoni. Sharq mamlakatlarida, shu jumladan, O‘rta Osiyoda ham qo‘llangan. Bu yerda hukm surgan sulolalardan somoniylarning vakillari shu unvon b-n atalgan: A. Ismoil Samoniy, A. Ahmad ibn Ismoil Samoniy, A.i Sa’id Nasr ibn Ahmad ibn Ismoil Samoniy va hakozo. Temuriylar sulolasining asoschisi sohibqiron Temur Ko‘ragon ham A. unvoni b-n hukmdorlik qilgan. Mang‘itlar sulolasiga mansub podshohlar ham A. deb atalgan. Ularning oxirgisi amir Olimxon edi, binobarin, mazkur unvon 1920-y.gacha (amir Olimxon shu yili taxtdan ag‘darilgan) mavjud bo‘lgan.

2. Rutba, mansab. O‘rta asrlarda, xususan, temuriylar davrida podshohlarga xizmat qilgan zodagonlar, lashkarboshilar, amaldorlarga amirlik rutbasi berilgan. N. ham A.lik rutbasiga ega bo‘lgan. Ma’lumki, u dastlab saroy xizmatiga kirganda Sulton Husayn Boyqaro uni muhrdor lavozimiga tayinlagan edi. Oradan ikki yil o‘tgandan so‘ng 1472-y.da N.ni devoni oliy A.i etib tayinlagani haqida farmon chiqargan va shunga binoan shoir yuksak lavozimni egallagan. Bu haqda “Habib us-siyar”da shunday ma’lumot beriladi. “Shundan keyin sulton xizmatlarining yaqin do‘sti xoqonning munosib xohishiga binoan devoni oliy amirligi mansabini egalladi va tillabof jubba hamda kulohi navro‘ziy b-n sarafroz etildi...”.

Ad.: *Наршаҳий. Бухоро тарихи. – Т., 1991; Низомиддин Шомий. Зафарнома. – Т., 1997; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985.*

Q.E.

AMIR ABDUXOLIQ (Abdulxoliqbek) – xurosonlik oliynasab bek va lashkarboshi. N. b-n bir davrda Husayn Boyqaro saroyida xizmat qilgan. Otasi Nizomiddin Ahmad va bobosi Feruzshohbek ham o‘z davrining taniqli amirlaridan edi, xususan, Feruzshohbek Shohrux mirzo huzurida ulug‘ amir bo‘lgan. Otasidan ko‘ra bobosi ko‘proq mashhur bo‘lgani sababli A.A.ning ismiga bobosining ismini qo‘shib, Amiri Feruzshoh deb ham ataganlar. A.A. 1469-y.dan Husayn Boyqaro xizmatida bo‘lgan. Yodgor Muhammad mirzo xuruj qilganda, Husayn Boyqaro amir Valibek va A.A.larni unga qarshi yuborgan. So‘ngra o‘zi ham ularning ortidan borgan. Chinoron jangida Sulton Husayn lashkarining so‘l

qo‘liga qo‘mondonlik qilish A.A.qa topshirilgan. Bu urushda N. ham qatnashgan. Yengilgan Yodgor mirzo qaytadan kuch to‘plab kelib, Hirotni egallaganda A.A. Husayn Boyqaroning unga qarshi harbiy harakatlarida ishtirok etgan. Sulton Husayn Bog‘i Zog‘onga hujum qilganda, amir A.A.ni amir Valibek b-n birga Yodgor mirzoning asosiy tayanchi bo‘lgan Ali Jaloyirni qo‘lga olish u-n yuborgan.

A.A. iqtidorli lashkarboshi bo‘lgan. Mirzo Abu Bakr Xurosonga bostirib kirganda, Abdulxoliqbek Sulton Husaynning farmoniga binoan bir nechta beklar b-n unga qarshi jangga kirgan. Abu Bakr mirzo yengilgan va qochgan. Xorazm viloyatiga Shayboniyxon hujum qilganda, Sulton Husayn Boyqaro A.A.ni o‘n ming kishilik qo‘shin b-n yordamga yuborgan. Keyinchalik Sulton uni Xorazmga hokim qilib tayinlagan va u bir necha yil Xorazmni idora qilgach yana Hirotga chaqirib olingan. 1498-y.da Marvga yurish chog‘ida, Sulton Husayn o‘g‘li Muhammad Qosim mirzoni Hirotni boshqarishga tayinlab, N. va A.A.ni uning yoniga qo‘yib ketgan. A.A.ning qachon vafot etgani ma’lum emas.

Ad.: *Абдураззоқ Самарқандий. Матлаъи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. 2-жилд. – Т., 2008; Таворихи гузида – Нусратнома. Факсимал. – Т., 1967.*

Q.E.

“AMIR ALISHER BORASIDA SULTON HUSAYN MIRZO HAZRATLARI CHIQARGAN (NISHON)” – N. nomiga chiqarilgan maxsus hujjat. Tarixdan ma’lumki, N.ning ukasi Balx hokimi Darvish Alibek 1490–1492-yy.da Husayn Boyqaroga bo‘ysunishdan bosh tortadi va sultonning siyosatiga uchraydi. Ana shu yili Husayn Boyqaro N. nomiga bir nishon chiqaradi. Nishonda ukasining sultonga qarshi harakati tufayli N.ga nisbatan hech qanday ko‘ngilsizlikka yo‘l qo‘yilmasligi ta’kidlanadi.

Nishonni o‘qir ekanmiz, Husayn Boyqaro oldida N. buyuk inson sifatida gavdalanishini ko‘z oldimizga keltiramiz. Darvish Alibek voqeasi va bu nishon haqida matbuotlarda xabar va maqolalar e’lon qilinsa-da, biroq nishonning to‘liq tarjimasi ilm ahli diqqatiga havola qilinmay kelinardi. 1982-y.da uning o‘zbekcha tarjimasi e’lon qilindi. Matni quyidagicha: “(Taxtimiz) tayanchi, zafarlarga yo‘ldosh farzandlar, sof rayli va osmon savlatli amirlar, qalbi quvnoq sadrlar, oliy qadrli vazirlar, davlat arkonlari, oliyjanob hazrat (sulton)ning ayonlari va shuningdek, ulug‘ sayidlar tabaqasi, izzatli ulamolar va mashoyixlar, barcha aholi va avom, turk-u, arab-u ajam guruhlari – hamma bilsin!

Jahon ahliga zohir, oydin va ravshandirki, biz o‘zimizning xos mahramlarimiz darajasini yuksaltirishni, o‘z maxsusligi bilan tanilgan yaqin kishilarimizning martabasini ulg‘aytirishni vojibotlardan deb hisoblaymiz. U mahramlar (bizga nisbatan) sobiq munofiqatchiliklari, vafodorliklari va haqgo‘yliklari tufayli (hozirda ham) bizning saropardamiz xilvatxonasiga yaqindirlar va mahramlikning eng yuqori poyasiga yetganliklari tufayli, xotirimiz sirlariga aloqadordirlar. Xususan, saltanatning ustuni, davlatimiz tayanchi, xoqonlikning kifti, sulton hazratlarining yaqini Nizomuddin Amir Alisher!

Biz o‘z davlatimiz oftobi shu’lasi balqigan va (sultonlik) navbatimiz tantanasi yangray boshlagan kunlardanoq sof ra’ yimiz va shifobaxsh niyatimizni u zotning oliy darajadagi izzatini yanada kamolga yetkazishga va yaqinlik pog‘onalarini yanada yuksaltirishga qaratdik: uning orzulari poyasini va shavkat-u qudrat cho‘qqisini pok rabboniy inoyat qo‘llovi bilan shu chegaraga yetkazdikki, u zotning oliy shuhrati “sobiq mahramlar – bizga yaqinlardir” (degan oyatda) ko‘zda tutilganlar orasida “Musoga Horun qanday yaqin bo‘lsa, sen ham men uchun shundaysan”, degan oyatning qimmatbaho saruposi bilan sharaf topdi va shu tufayli, bizning davlatimiz nishoni “menga o‘z ahlimdan nazir bershin, birodarim Horun bilan taxtimni mustahkamlagin” degan oyat nag‘masi bilan tarannum etilmoqda va bu ma’ni kun sayin, balki, soat sayin ortib va mustahkamlanib bormoqda.

Mazkur saltanat ustuni (Amir Alisher)ning birodari shu kunlarda ba’zi gunohlari tufayli (biz

tomondan) e’tiroz maydonida tutib turilipti. Lekin irodamiz shuki, tez orada uning jarimalari sahifasini afv raqamlari bilan yuvib, ravshan qilurmiz. Ammo shu orada bizning nurli xotirimizda shunday (xavf) tutildiki, sahv-u g‘aflat arboblari xatokorlik va kaltabinlik yuzasidan kelib chiqib, bu voqeani mamlakat tayanchi (Alisher)ning ishlariga ham ta’sirli, deb o‘ylab qolishlari mumkin.

Shunga binoan, ushbu hukmni buyurdik mazkur saltanat ustunining vakillari, korgarlari va mutasaddilari hukmimiz ostidagi mulklarning barchasida bizning ilgarigi mutlaqo to‘g‘ri ko‘rgazmamizga amal qilib va benihoya g‘amxo‘rligimiz soyasida o‘z ishlariga kirishsinlar, (amirning) nafis xotirini osuda tutsinlar!

Hokimlar, dorug‘alar, dorussaltana Hirot va buluklar aholisining tutishlari lozim bo‘lgan yo‘l shuki, ular (amirning) yuksakligi va qudratliligini bizning davlat bilan egizak deb bilib, uning bizga yaqinligi va mahramligini ming bor ortiq tasavvur qilsinlar, u kishiga va qaqrindoshlariga nisbatan sultonning mehribonligi va shafqatini kundan kunga taraqqiyda, deb bilsinlar, (amirning) muhim ishlarida ko‘maklashish va qo‘llab-quvvatlashni bajo keltirsinlar, nuqsonga yo‘l qo‘yishdan o‘zlarini tiysinlar va ehtiyot bo‘lsinlar!

Oliy farmonga muvofiq – uning joriyligi kecha-kunduzlar boqiy ekan, davom etsin, – muborak ramazon oyining yigirma to‘rtinchisida 898 (9-iyul, 1493)-yili bitildi.

Ad.: *Ўринбоев А. Алишер Навоий ҳаётига оид икки ҳужжат // Адабий мерос. 2-сон. 1982; Абдурахман Джами. Письма. – Душанбе, 1989; Бартолд В.В. Мир Али Шир и политическая жизн. Соч. Т. 2. ч. 2. – М., 1964; Ўринбоев А., Ҳасанов М. Навоий замондошлари мактубларида. – Т., 1990.*

B.R.

AMIR BADRIDDIN (1498-y.da o‘ldirilgan) – xurosonlik amirlardan. N.ning zamondoshi va sodiq tarafdori. O‘z faoliyatini sulton Abusaid davrida oddiy navkarlikdan boshlagan. Sulton Husayn davrida amirlik rutbasi berilgan. 1487–1488-yy.da N. b-n Astrobodda bo‘lgan. Keyinchalik Isfaroin viloyatining hokimi etib tayinlangan va o‘limiga qadar shu mansabda turgan. O‘zining yaqin do‘sti Bobo Alibek b-n birga A.B. o‘z faoliyatida N.ni rahnamo deb bilgan va uning siyosiy yo‘lini qo‘llab-quvvatlagan. Shu sababli N.ning katta ishonchini qozongan. Buni N.ning Astrobodga hokim qilib yuborilgan vaqtida A.B. ni o‘zi b-n olib ketgani ham tasdiqlaydi. Uning A.B.ga qanchalik ishongani tarixiy manbalarda keltirilgan ushbu ma’lumotda ham ko‘rinadi: “Amir Nizomiddin Alisher Jurjonda mamlakat ishlarini bir yil muddat idora qilgandan keyin xotirini ko‘p hurmatli xoqonga mulozamat qilish istagi chulg‘ab oldi va istixoradan so‘ng A.B.ni Astrobodda o‘zining o‘rniga qoldirib, dorussaltana Hirot sari otlandi va jami iqtidor xoqonning ko‘zlarini nurlantirib, o‘sha viloyat hokimligini arkoni davlatidan birontasiga topshirishni iltimos qildi”. Lekin o‘sha paytda Sulton Husayn mirzo N.ning poytaxtga qaytishiga rozilik bermagan. Faqat bir necha oydan so‘nggina mazkur masala o‘z yechimini topgan. N. Hirotga qaytganda, A.B. ham poytaxtga kelib, o‘z xizmatini shu yerda davom ettirgan (1488). Hirotda vaziyat hamon murakkab bo‘lib, shoirning dushmanlari unga qarshi faoliyatini davom ettirayotgan edi. Darvesh Alibek isyoni (1490) ularga yana bir bahona bo‘ldi va ular zo‘r berib bu ishda N.ning qo‘li borligiga Sulton Husaynni ishontirishga urindilar. Lekin N. va uning do‘stlari ham qarab turmaganlar. Birmuncha vaqt davom etgan bu qarama-qarshilik oxir-oqibatda Majdiddinning mansabidan bo‘shatilishi hamda javobgarlikka tortilishi b-n tugagan va u podshohning buyrug‘i b-n A.B. tomonidan hibsga olingan.

N. boshliq taraqqiyparvar kuchlar safida turib, A.B. markaziy hokimiyatni mustahkamlashda, isyonchi beklar va shahzodalarning harakatlariga qarshi kurashda ishtirok etgan va shu yo‘lda halok bo‘lgan (1498). Bu voqeaning qanday yuz bergani haqida tarixiy manbalarda ma’lumotlar saqlanib qolgan. O‘sha paytda u Isfaroyin viloyatida hokim bo‘lgan. Husayn Boyqaroning o‘g‘li, Astrobod hokimi Muhammad Husayn mirzo isyon ko‘taradi

va katta qo‘shin b-n kelib Isfaroyinni qamal qiladi. U A.B.ga taslim bo‘lishni va uning tomoniga o‘tishni taklif etgan. Lekin A.B. xoinlikdan ko‘ra o‘limni afzal ko‘rgan va jangda o‘ldirilgan. Bu haqda Xondamir shunday yozadi: “Muhammad Husayn mirzo... 995-yilning oxirida Isfaroyin ustiga yurdi, nogoh Amir Badriddinni qamal qildi. O‘sha sherpesha amir huzuriga odam yuborib, uni itoat va tobe’likka da’vat qildi. Amir Badriddin xoqoni mansurning tarbiyatini rioyat qilib, shahzodaga bo‘yin egmadi. Huzuridagi andak odami bilan Astrobod sipohiga qarshi jangga tushdi.... Ammo Muhammad Husayn mirzoning lashkarlari ko‘plik qilib, uni har tarafdan o‘rab oldi.... O‘sha zahotiyoq jangni to‘xtatsin deb omonlik va’da qildilar va uni shahzodaning marhamatidan umidvor qildilar. Amir Badriddin bu gaplarga mutlaqo quloq solmadi va tig‘ zarbidan shahidlik sharobini ichmaguncha, jangni davom ettirdi”.

Ad.: *Эргашев Қ. Некоторые аспекты государственной деятельности Алишера Навои. – Т., 2009; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985; Турсунов Ю. Навоийнинг ҳаёт йўли: йиллар ва манзиллар. – Т., 2023.*

Q.E.

AMIR KAMOLIDDIN (to‘liq ismi Amir Kamoliddin Sulton Husayn, XV asr) – shoir, mudarris. Xondamir o‘zining “Xulosat ul-axbor” asarida A.K. to‘g‘risida shunday yozadi: “Tab’ining sog‘lomligi-yu zehnining o‘tkirligi, nasl-nasabining ulug‘ligi-yu o‘z mehnati b-n erishgan darajalarining buyukligi, nafsga berilmagani-yu go‘zal xulqi b-n mashhur edi. Muloyimtabiat, mulozamatli va shirinso‘z kishi bo‘lib, hamisha xulq-atvor va yurish-turishda U N.ga taqlid qilardi.

Ba’zida qasida va g‘azallar ham yozib turardi. Quyidagi matla’ uning ijodi mahsulidir:

Manam on kas, ki az himmat kashidam
poy dar domon,
Qadam dar vodiyi hayrat nihodam
be sar-u somon.

Tarj.: Men ham himmatim tufayli o‘zimni chetga olgan kishiman. Ovvora-yu sarson bo‘lib hayrat vodiysiga qadam qo‘ydim”.

Ad.: *Ғиёсиддин ибн Ҳумомиддин Хондамир. “Хулосат ул-ахбор фи баён ал-аҳвол ал-ахёр” (“Яхши кишиларнинг ҳаётлари тўғрисида қисқача маълумотлар”) асаридан бир бўлим // Гўё Эътимодий нашрга тайёрлаган. – Кобул, 1966.*

K.R.

AMIRI RAVSHAN ZAMIR – N.ning ulug‘ shoir va mutafakkir bo‘lishi b-n birga davlat arbobi va madaniyat homiysi sifatida amalga oshirgan, mamlakat obodonligi yo‘lida qilgan xayrli ishlari evaziga xalq orasida unga berilgan faxrli laqab. (Q.: Navoiy qurgan binolar, “Navoiy davlat arbobi”, “Navoiyga bag‘ishlangan asarlar”). Hozir ham, xususan, Hirotda “A.R.Z.” iborasi “Navoiy”ni anglatadi.

Ad.: *Ҳайитметов А. Табаррук излар изидан. – Т., 1979.*

Ab.H.

AMIRIY MAVLONO YUSUF (XV asr Hirot) – zullisonayn shoir. N. “M.L.”da Amir Temur zamonidan to o‘g‘li Shohrux hukmronligining oxirigacha yetishib chiqqan turkiy shoirlar qatorida A.M.Y.ni ham hurmat b-n sanab o‘tadi. “M.N.” tazkirasining avvalgi majlisida esa unga alohida fiqra ajratib, “Mavlono Amiriy turk erdi va turkcha she’ri yaxshi voqe’ bo‘lubdur, ammo shuhrat tutmabdur”, – deb ma’lumot beradi va shoirlik mahoratiga misol sifatida “Dahnoma”dan quyidagi baytni keltiradi:

Ne yemakdin, ne uyqudin solub so‘z,
Yemakdin to‘yub, uyqudun yumub ko‘z.

Forsiy ijodida Kamol Xo‘jandiyga tatabbu’ qilganini aytib, bir matla’sini namuna tariqasida beradi:

Ro‘zi qismat har kase az aysh baxshi xud sitond,
G‘ayri zohid, k-o‘ riyozatho kashid-u xushk mond.

Tarj.: Nasiba taqsim qilinayotgan kunda aysh-dan har kim o‘z ulushini oldi, faqat zohid har qan-cha ranj-u mashaqqat cheksa-da, quruq qoldi.

“Qabri Badaxshon sari Arhang Saroydadur”, – deydi.

N. A.ning devonini chuqur o‘rgangan. Uning “Vafo to bo‘ldi jononimg‘a maxsus...” degan misra b-n boshlangan g‘azali vazni va radifida:

Raqib ul nav’ erur jonong‘a maxsus
Ki muhlik dardi oning jong‘a maxsus.

Va:

Erur ishqing meni mahzung‘a maxsus
Ki, Layli dardidur Majnung‘a maxsus,

matla’lari b-n 2 g‘azal yozgan. A. g‘azallari, tar-je’band, tuyuqlarining ruhi lirikasiga chuqur sin-gib ketgan. A. tarje’bandining har bandi oxirida takrorlanuvchi:

Holatim bad, g‘ussa behad, vasl maqsad, nola besh,
Baxt vojun, dard afzun, diyda purxun, siyna resh,

bayti b-n N.ning:

Ko‘z och, ashki nadomat soch
o‘z ahvolingg‘akim, bordur,
Tunung tiyra, ko‘zung xira,
yo‘ling burtoq, oting oqsoq...
Ko‘zum namlik, bo‘yum xamlik,
ichim anduh-u motamlik,
Ne hamdamlik, ne marhamlik
topib bu mehnati pinhon...

kabi baytlari o‘rtasida uslubiy o‘xshashliklar b-n bir qatorda g‘oyaviy hamdardlik ham bor. N. ham o‘z davridan, yashagan tarixiy-konkret muhitidan, undagi adolatsizlik – do‘stining nosa-mimiyligidan, inson bolasining baxtga yo‘l topa olmay, ruhan qiynalganidan, g‘am-anduhga bot-ganidan o‘z noroziligini A. singari qisqa-qisqa iboralar b-n lo‘nda-lo‘nda qilib ifodalagan.

Shularga asosan, A.ni N.ning eng ko‘zga ko‘-ringan salaflaridan hamda ustozlaridan biri deb hisoblash mumkin.

Ad.: *Амирий. Ғазаллар. Таржеъбанд. Туюқлар // Навоий замондошлари (Терма шеърлар). – Т., 1948; Юсуф Амирий. Даҳнома. Чоғир ва Банг // Муборак мактублар. – Т., 1987; Давлатшоҳ Самарқандий. Тазкират уш-шуаро. – Хўжанд, 2015; Зариф Ҳ. Навоийнинг адабий муҳитига доир // Навоий замондошлари. – Т., 1948; Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т., 1976.*

E.O.

AMIRIY (Taxallusi; ismi: Amir Umarxon (1787 – Qo‘qon – 1822) – Qo‘qon xoni, iste’dodli zullisonayn shoir. Qo‘qon xonlari sulo-lasiga mansub bo‘lib, shoh-ruxiylardan Norbo‘tabiyning o‘g‘li. O‘zbeklarning ming urug‘idan. Boshlang‘ich sa-vodini oilada chiqarib, keyin madrasada tahsilini, kamolga yetkazadi. Zamon fuzalolaridan Muhammad Ya’qubdan tasavvuf ilmini o‘rganadi. Bu davrda Qo‘qon xonligi tax-tida uning akasi Olimxon o‘tirar edi. Yoshligidan saroy xizmatiga jalb qilingan U. o‘zining zako-vati va salohiyati b-n tez orada akasining o‘ng qo‘liga aylanadi va davlatni boshqarish ishlarida faol ishtirok eta boshlaydi. Olimxon 1807–1808-yy.da unga Farg‘ona hokimligini topshiradi. Shu yillarda u Andijon hokimi Rahmonqulibiyning qizi Mohlaroyim (Nodira)ga uylanadi.

Siyosiy arbob sifatidagi nozik iste’dodi, xalq va amaldorlar b-n muomala madaniyati, yaxshi xulqi, chuqur bilimi, keng dunyoqarashi tufayli qisqa fursatda u hokim tabaqalarning e’tiboriga tushadi. Ular Zolimxon nomi b-n mashhur bo‘l-gan Olimxonning Toshkentda ko‘tarilgan g‘ala-yonni bostirish u-n qo‘shin tortganidan foydala-nib, fitna uyushtiradilar va 1810-y.da A.ni xon qi-lib ko‘taradilar, Olimxon esa o‘ldiriladi. A. Qo‘-qon xonligi hududini kengaytirish, hokimiyatni mustahkamlash borasida o‘zidan ilgari o‘tgan xonlar siyosatini davom ettirgan. Buxoro amiri-ga qarashli Turkiston shahri (1815), O‘ratepani

(1817) bosib olgan. Sirdaryo bo‘yidagi qozoqlardan tortib olgan yerlarda Yangiqo‘rg‘on, Julek, Qamishqo‘rg‘on, Oqmachit, Qo‘shqo‘rg‘on nomli harbiy istehkomlar qurdirgan. Ular O‘rta Osiyoni Rossiya b-n bog‘laydigan muhim savdo yo‘lida joylashgan edi. U Rossiya b-n diplomatik munosabatlar o‘rnatishga harakat qilgan, 1812-y. da Peterburgga elchilar yuborgan, biroq qaytishda ulardan biri xastalanib vafot etadi, ikkinchisi esa, Petropavlovskda surgun qilingan askar tomonidan o‘ldiriladi. Bu noxush voqeani bartaraf etish u-n 1813-y. mayda Qo‘qonga F.Nazarov elchi bo‘lib keladi. A.ga 1818-y. Qo‘qonda jome masjidi qurdirgani u-n ulamolar fatvosi b-n unga “amir ul-muslimin” unvoni berilgan. A. davrida xonlik hududida sug‘orish inshootlarini kengaytirish, kanallar qazish, masjid va madrasalar qurish kuchaygan. Qo‘qon, Toshkent, Turkiston, Chimkent, Sayram, Avliyootada masjid va madrasalar qurilib, qabristonlar tartibga keltirilgan. Shahrixon shaharchasi barpo etilgan, yangi qishloqlar vujudga kelgan. Xon amaldorlarining talonchilik siyosatiga qarshi Chimkent va Sayramda ko‘tarilgan qozoqlar qo‘zg‘oloni bostirilgan.

XIX asrning 2-choragida Qo‘qonda o‘ziga xos ilmiy-madaniy muhit vujudga keladi – uning boshida ma’rifatparvar hukmdor A. turar edi. U ilm, madaniyat, san’at, adabiyot, turli kasb-hunarlarning rivojiga katta e’tibor beradi, madrasalarda o‘qish-o‘qitish ishlarini yaxshilaydi, turli hunar maktablari ochilishini qo‘llab-quvvatlaydi. Ilm-u ijod ahliga homiylik qilganligi tufayli uzoq-yaqindan ko‘plab iste’dod sohiblari undan panoh izlab kelganlar. O‘zi ham Amiriy taxallusi b-n she’rlar yozgan xon, xususan, shoirlarni o‘ziga yaqin tutar edi. Uning atrofida 70 dan ortiq shoir yig‘ilgan. 1821-y.da Fazliy Namangoniy A. amriga binoan 63 shoirning she’rini o‘z ichiga olgan “Majmuai shoiron” to‘plamini tuzadi. A.ni ulug‘lab qasidalar yozish, g‘azallariga tatabbu’lar bog‘lash bu shoirlar ijodida yetakchi o‘rin tutgan.

Mohlaroyim va o‘g‘li Muhammadalixonga uning ta’siri kuchli bo‘lgan. Mohlaroyim Nodira va Komila (tojik tilidagi she’rlarida Maknuna), o‘g‘li Xon taxalluslari b-n ijod qilishgan. Nodira devoni debochasida yozilishicha, U.ning latif ta’bida hamisha she’r shavqi g‘olib bo‘lib, har lahza ijod zavqi b-n yashagan, xayolida doim yangi-yangi tashbeh-u timsollar, baytlar aylanib yurgan. Davlat ishlari, mamlakat tashvishlari uning butun vaqtini olganiga qaramay, g‘azal-u muxammaslar yozishni kanda qilmagan va bu go‘zal she’rlar atrofidagilarga katta ta’sir ko‘rsatgan. O‘zi ham A. ta’sirida va unga taqlid qilib she’riyatga kirib kelganini e’tirof etadi.

A. ijodida mumtoz she’riyatning 10 ga yaqin janrlarida yaratilgan ko‘plab she’rlar mavjud. Bu she’rlar shoir devoni nusxalari, Fazliyning “Majmuai shoiron” tazkirasi, turli bayozlardan joy olgan. A. ijodiga qiziqish shu darajada kuchli bo‘lganki, uning devoni XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Toshkent, Buxoro, Istanbul kabi shaharlarda toshbosma usulida 15 martadan ortiq chop etilgan. Shu b-n birga, she’riyat muxlislari tomonidan qayta-qayta ko‘chirilgan, she’rlari turli bayoz va majmualarga kiritilgan. Ularning nusxalari Sankt-Peterburg, Toshkent, Samarqand, Buxoro va Qo‘qondagi qo‘lyozma fondlari, kutubxonalar, muzeylar va ba’zi bir adabiyot muxlislari qo‘lida saqlanadi. O‘zR FA A.N. nomidagi Adabiyot muzeyida U. devonining 26 ta, Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institut fondida 17 ta qo‘lyozmasi mavjud. A.ning qo‘qonlik adabiyot ixlosmandi S.Yo‘ldoshevning shaxsiy kutubxonasida saqlanayotgan 1877-y.da ko‘chirilgan nisbatan mukammal devoniga asoslanadigan bo‘lsak, shoirning hozirgacha bizga jami 544 ta she’ri ma’lum: 465 ta g‘azal, 53 ta muxammas, 5 ta musamman, 6 ta musaddas, 16 ta tuyuq. O‘zbek tilidagi she’rlar 307 ta, fors-tojik tilidagi she’rlar 163 tani tashkil etadi. O‘zbek va fors-tojik tilidagi she’rlarini to‘plab, devon tartib bergan. U g‘azal, muxammas, musaddas, tuyuq janrlaridagi 10 ming misradan ortiq she’rni o‘z ichiga oladi.

A. ijodi janriy tarkibi jihatidan rang-barang bo‘lmaganidek, mavzu doirasi ham keng emas. Shoir merosi g‘azal, muxammas, musaddas, musamman, tarje’band, tuyuq kabi janrlardan iborat. U o‘z iste’dodini ko‘proq g‘azal va muxammaslar yaratishda namoyon etgan. Shoir she’riyati mavzu-

siga ko‘ra asosan ishqiy yo‘nalishda. Diniy mavzudagi she’r va baytlar ozchilikni tashkil qiladi. Shoh-shoir ijodida salaflarida bo‘lgani kabi taqdirdan, dunyodan, odamlardan shikoyat motivlari, deyarli, uchramaydi. U., asosan, aruzning xalqchil, ko‘p qo‘llanishi jihatidan turkiy vaznlar sifatida mashhur ramal va hazaj bahrlarida ijod qilgan.

A. she’riy salohiyati ancha baland shoir bo‘lgan. U Lutfiy, Jomiy, N., Fuzuliy, Bedilni o‘ziga ustoz sanab, ulardan mahorat sirlarini o‘rganadi, ularga ergashib ijod qiladi, g‘azallariga muxammaslar bog‘laydi. Bu haqda uning o‘zi shunday yozadi: “Va gohi ustodlar devonlaridin biror shavqangez va muhabbatomez g‘azaldin rangin va tahsin qofiya topar erdim, tatabbu’ida g‘azal aytur erdim, filhol, zavq-shavq fartidin muxammas bog‘lar erdim. Va chun har abyot gavharlarin xayol dafinasidin terib va har nazm javharlarin andisha xazinasidin chiqorib, zohir qilur erdim”. Ayniqsa, N.ning “Et”, “Tut”, “O‘t”, “Erur”, “Qolmamish”, “Etmish”, “Ixtisos”, “Maxsus”, “Har taraf, o‘ynamoq”, “Tasadduq” “O‘lturg‘udek”, “Aning”, “Aylamak”, “Aylading”, “Ko‘rung”, “Ko‘rmadim”, “Bor ekan”, “Isi”, “Qiloli”, “Kelmadi”, “Sadqasi” radifli o‘nlab g‘azallariga tatabbu’lar qilgan. Shoirning “Xastamen ul guldin ayru andalibi zordek”, “Qadam qo‘ydi buzulgon tiyra kulbam sori tun mohim”, “Ko‘zimdin to nihondur og‘zingu zulfung savodi ham”, “Manki sahroyi junun Majnuni sargardoniman”, “Chekmasa gar charx bir xurshidi tobon dardini”, “Yo‘luqti tun arosida manga ul mohi shabgardim” misralari b-n boshlanadigan g‘azallari ham buyuk salafi g‘azallariga tatabbu’lardir. A. yana N.ning 24 ta g‘azaliga muxammas bog‘lagan, salafi qo‘llagan timsol-u tashbehlarni rivojlantirgan va ma’no doirasini kengaytirgan. O‘zining buyuk salafidan bahramandligi haqida uning o‘zi shunday yozgan edi:

Bir paripaykar xati la’lini sharh ettim, Amir,
Bu g‘azalni zeri mashqidir Navoiy daftari.

A.ning o‘z devoniga yozgan so‘zboshisidayoq N. ta’siri shundoqqina sezilib turadi. Bu debochani u ustozi debochasiga o‘xshatib yozgan.

A. ham N. kabi 9, 10, 11, 12, 13 baytli uzun-uzun g‘azallar yozadi.

A. o‘z tatabbu’larida goh vazn, qofiya va radifni saqlasa, goh qofiya tartibini o‘zgartiradi. M-n, N.ning mashhur “Kelmadi” radifli g‘azaliga tatabbu’sida ham yangi qofiya tartibini qo‘llaydi:

Necha kun bo‘ldiki, ul sarvi xiromon kelmadi,
Bordi vaslini so‘rog‘lab ko‘yiga jon, kelmadi.

N. g‘azali esa mana bunday boshlanadi:

Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro‘ kelmadi,
Ko‘zlarimga kecha tong otquncha uyqu kelmadi.

A. ham N. qo‘llagan so‘zlarni sevib qo‘llaydi, N.ga o‘xshab gap tuzishga harakat qiladi, N. kabi katta-katta g‘azallar yozadi. Matla’ni go‘zal boshlashga harakat qiladi. Bu uning har bir g‘azalga katta tayyorgarlik ko‘rib kirishganini ko‘rsatadi. O‘z fikrini xalqona tashbehlar b-n asoslashda ham N. yo‘lidan boradi. Ba’zida baytlarini navoiyona shakllantiradi. M-n, A.ning:

Vasl aro taklifi jannat qilmakim, maqbul emas,
Hur qilmas orzu har kimni bo‘lsa yori xo‘b, –

bayti aslida N.ning:

Kimki oning bir malaksiymo parivash yori bor,
Odami ersa, pari birla malakdin ori bor, –

degan mashhur misralarining o‘ziga xos yangicha talqinidir.

N.ning ma’shuqaning oshiq ahvolini so‘ramasligiga lablarining azbaroyi shirinligidan birbiriga yopishib qolganligi sabab qilib ko‘rsatilgan husni ta’lil san’atining betakror namunasi bo‘lgan go‘zal bayti bor:

Yor og‘iz ochmasqa dardim so‘rgali
toptim sabab:
Ko‘p chuchukluktin yopushmishlar
magar ul ikki lab.

Albatta, bu haqiqat emas, balki “go‘zal yolg‘on”, lekin ushbu tashbeh o‘zining badiiy go‘zal-

ligi, nozikligi, ohorliligi va ta'sirchanligi b-n o'quvchini to'lqinlantiradi, hayratga soladi.

A. bir necha baytlarida o'ziga juda manzur bo'lgan bu ohorli tashbehning yangidan-yangi qirralarini ochadi. Jumladan, quyidagi baytida shirinlik ikki labingni bir-biriga yopishtirib qo'ygani u-n ham mening zor holimni so'ramaysan, deb lutf etadi:

So'ramassan zor holimkim, chuchuklik ayladi
Bir-biriga ul ikki la'li shakarboringni band.

A.ning:

Har kishigakim vafo qildim, mango qildi jafo,
Olam ahlini sarosar imtihon ettim, Amir, –

bayti ham N.ning:

Kimga qildim bir vafokim, yuz jafosin
ko'rmadim,
Ko'rguzub yuz mehr, ming dard-u
balosin ko'rmadim, –

degan misralarining aks-sadosiga o'xshaydi.

N. ijodida eng faol timsollardan biri – quyun. Bu timsol vositasida shoir falak gardishining tartibsiz aylanishi, insonning dunyo sahrosida charx yurib yurishi, oshiqning ishq dashtida ovora-yu sarson kezishi, kishi boshiga balo-ofatlarning yog'ilishi kabi ko'pdan-ko'p hodisalarni ko'zda tutadi. A. ijodida quyun obrazi ham ko'p uchraydi. Bu jihatni N. b-n qiyosan o'rganish kerak.

Ishq aro bu notavon ko'nglum
nechuk topqay amon?!
Ko'rdi jodu ko'zlaringning fitnasidin yuz quyun.

A. N.ning muayyan bayti ta'siri va ilhomida bir necha baytlar ijod qiladiki, bu b-n u nafaqat ustozi fikrlarini boyitib, tashbehlarini boyitadi, balki ularni qaysidir ma'noda izohlaydi. M-n, A.ning:

Zohido, gar sanga hur-u jannat ul-ma'vo kerak,
Boda bazmida manga bir sho'xi diloro kerak
Men istab yor vaslin, sen tilarsen
jannat, ey zohid,
Sanga kavsar mayi, manga labi
jonon erur shirin, –

kabi baytlari N.ning zohid va so'fiy o'rtasidagi tafovut aks etgan:

Zohid senga hur-u manga jonona kerak,
Jannat sanga bo'lsun, manga mayxona kerak.
Mayxona aro soqiy-u paymona kerak,
Paymona necha bo'lsa to'la, yona kerak, –

degan mashhur ruboiysining turfa izohlariga o'xshab ketadi.

Tilar ko'nglumki, oshiqlig'da rasvoyi
jahon o'lsam,
Ul oyning husnig'a, yo Rab,
mani mundin batar zor et! –

bayti "L.M." dostonidagi otasi dardiga davo tilab, haj ziyoratiga olib borgan Qaysning Ka'bani tavof qilar ekan, ko'nglidagi ishq o'tini o'chirish o'rniga yana-da sarbaland etishini so'rashi lavhasini yodga tushiradi.

A. N.ning o'zini ta'sirlantirib, ilhom bag'ishlagan badiiy barkamol g'azallariga taxmis bog'laydi va g'azal mulkining sultoni g'azallarida ilgari surilgan fikrlarni davom ettiradi, rivojlantiradi, ba'zida izohlaydi. M-n:

Ul malaksiymoki, ko'nglum oni xilvatgohidur,
Dardi ishqidin sirishkim olu chehra kohidur,
Rindlig'din maskani piri mug'on dargohidur,
Dayr ko'yining gadoyimenki, olam shohidur
Mastlig' vaqtida bir oshufta xummori aning.

Ko'rinib turganidek, A. tomonidan qo'shilgan misralar N. baytining o'ziga xos ochqichi va izohi bo'lib xizmat qilgan. A. ijodi N. adabiy merosining ta'siri keng va rang-barang bo'lib, bu mavzuni bir necha yo'nalishlarda tadqiq etish mumkin.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Амирий. Девон. – Т., 1972; Амирий. Қошингга тегузмағил қаламни. – Т., 2008; Амирий. Девон. 2 жилдлик, 1-жилд. (Ўзбекча шеърлар), 2-жилд. (Тожикча шеърлар). – Т., 2017. Қодирова М. Сўзбоши // Амирий. Девон. – Т., 1972; Ибрат. Фарғона тарихи. – Т., 1991; Қайюмов А. Қўқон адабий муҳити. – Т., 1961; Нодира-Комила. Девон. – Т., 2001; Қобилова З. Амирий шеърияти. – Т., 2010; Очилов Э. Таъби нозик, зеҳни салим шоир // Барҳаёт сиймолар. – Т., 2012.*

E.O., Z.Q.

AMIR KAMOLIDDIN HUSAYN (t.y. va v.y.n.) – davlat xizmatchisi, shoir. N.ning jiyani – akasi Shayx Bahlulbekning o‘g‘li. Faqirlik yo‘lini tutib, tarkidunyo qilgan. Yaxshigina tab’i bo‘lib, Xatmiy taxallusi b-n she’rlar yozgan. “M.N.”da uning ijodidan quyidagi matla’ keltiriladi:

Maro bisyor mushkil menamoyad furqati jonon,
Vidoyi joni shirin ast dushvor, ey musulmonon.

Tarj.: Jonondan judolik men u-n juda mushkul ko‘rinadi, chunki, ey musulmonlar, shirin jon b-n vidolashish qiyindir.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

E.O.

AMIR SULTON HASAN (Sulton Hasan Arhangiy, 1490-y. vafot etgan). Sulton Abusaid va Husayn Boyqaro davrida xizmat qilgan bek. N. o‘z hayotining og‘ir kunlarida, ya’ni Abusaid mirzo hukmronligi vaqtida moddiy jihatdan qiynalgan, muayyan bir xizmat va maoshga ega bo‘lmagan paytlarida ma’lum bir muddat A.S.H. xonadonida yashagan. Uning o‘g‘li Mirzobek b-n N. o‘rtasida yaqin do‘stlik munosabatlari yuzaga kelgan. A.S.H.ning nomi “Makorim ul-axloq”da ham tilga olingan. Xondamir unda N.ning “Men Amir Sulton Hasanning navkari edim”, – degan so‘zlarini keltiradi. Darhaqiqat, A.S.H. huzurida yashagan vaqtida N. harbiy harakatlarda ham mazkur amir b-n birga qatnashgan. Ma’lumki, bu yillarda Sulton Husayn Boyqaro Xuroson taxtini egallash u-n kurash olib borayotgan edi. Uning qo‘shinlari tez-tez Xurosonning turli yerlariga hujum uyushtirib turardilar. Ana shunday hujumlarning birida ularning ikki nafari asir qilib olingan. Asirlarning boshlarini kesib, hukmdorlarga yuborish haqida buyruq kelgan. A.S.H.ning o‘zi bu vaqtda o‘rdada emas edi. N. Mirzobekka asirlardan birining boshi o‘rniga jangda o‘ldirilgan bir jangchini boshini yuborishni maslahat beradi. So‘ngra ular ikkinchi asirning hayotini saqlab qolish haqida o‘ylaydilar. Shu vaqtda yangi buyruq keladi. Unda bir bosh yetarli ekani aytilgan edi. Shu tariqa N. ikki kishining hayotini saqlab qolgan.

A.S.H. keyinchalik Sulton Husayn Boyqaro davrida unga xizmat qilgan. U yaxshi kishi bo‘lsa-da, ichkilikka ruju qo‘ygan edi. N. yozishicha, uning umriga ana shu holat zomin bo‘lgan. N.ning shu munosabat b-n bitgan forsiy ta’rixi ham bor:

Mir Sulton Hasan, ki yak soat
Nabudash zi ishtig‘oli may duri.

Mirzobek nuri didayi o‘
Bud masti sharobi anguri.

Ki qazoshon rasid z-ofati may
Lek vaqti xumor-u ranjuri.

Bud mobayni favtashon dah sol
V-in buvad mahzi sidq-u mashhuri.

Gasht ta’rixi favti in “maxmur”
V – on yak shud ayon zi “maxmuri”.

Ad.: *Алишер Навоий. Девони Фоний. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Т., 1967.*

Q.E.

AMIR TEMUR (1336–1405) – N. o‘zining “X.” (1483–1485), “T.M.A.” (1488), “M.N.” (1490–1491), “N.M.” (1495–1496), “S.”, “M.L.” (1499), “M.” (1498–1499), “H.P.M.” kabi o‘ndan ortiq durdona asarlarida Amir Temur shaxsi, faoliyati, fazilati haqida fiqra, bob, bayt shaklidagi ma’lumotlar keltirgan. N. bitib qoldirgan bunday poetik lavha-yu chizgilarni uch guruhga bo‘lib tasnif qilish mumkin: 1. Ulug‘ shoir A.T.ni to‘g‘ridan-to‘g‘ri, poetik ishoralarsiz *Sohibqiron*, *shoh, hukmdor, shohi komron, jahon xoni, to‘rt ulus xoni, bek, shohi islompanoh* kabi so‘z va iboralar b-n sifatlab tasvirlagan. 2. N. o‘z asarlarida A.T.ni temuriylar haqidagi bob yoki izohlarda yashirin talmeh va metonimiya vositasida yodga oladi. Ayniqsa, “X.” muqaddimasining Husayn Boyqaro, Badiuzzamon Mirzo, Shohg‘arib Mirzo, Muzaffar Husayn Mirzoga bag‘ishlangan boblarida bu an’anaviy uslubdan mahorat b-n foydalanganini ko‘rishimiz mumkin. 3. N.ning o‘z asarlarida fikrlari isboti u-n boshqa ijodkorlarning temuriylarga oid qarashlari aks etgan she’rlariga murojaat qilishi. M-n: N. ning “H.P.M.” asari. Unda shoir ustozining musiqa nazariyasi haqidagi bilimlarini har tomonlama baholar ekan, mumtoz musiqa yo‘llaridan biri “saydi g‘azol”ga to‘xtaladi va uning bozgo‘y (ashulada biror so‘z yoki she’rni takror aytish) da aytgan forscha baytida Sulton Husayn Boyqaroning to‘rtinchi otasigacha tilga olgani haqida ma’lumot berib, uni yuksak baholaydi: “...inson olamida bu ikki baytdek oz aytibdurki, mamduh (madh qilinuvchi)ning to‘rtinchi otasig‘acha” zikr bo‘lmish bo‘lg‘aykim:

Sulton Husayn xusravi g‘oziy, ki misli o‘
Hargiz nabuda dar sadafi ro‘zgor dur.
Shoh ast shahriyor padar bar padar, ki hast
Mansur Boyqaroyi Umarshayxi bin Temur”.

Tarj.: Sulton Husayn muzaffar podshohdir, olam sadafi uningdek durni hech qachon ko‘rmagan; Mansur Boyqaro Umarshayx bin Temurgacha bo‘lgan ota-bobolari kabi u ham shohlar shohidir.

N.ning Sohibqiron A.T.ga oid chizgilarini yana quyidagicha ko‘rsatish mumkin:

1. N. “H.A.”da tasvirlangan uch badiiy lavhada u tabarruk zotni tilga oladi. 1) Husayn Boyqaroga bag‘ishlangan an’anaviy bobda “*Yetti otosig‘a degin xon kelib*” degan misra xarakteridagi xabarida Amir Temurga ishora qiladi. 2). Dostonning vafo haqidagi bobiga tamsil qilingan hikoyatda *To‘rt ulus xoni Temur Ko‘ragon, bek, shoh* nomi b-n besh o‘rinda uni eslaydi. Shu b-n birga N. “Vafo va afv odil podshohlar odati va yo‘llaridir” degan qadimiy hikmatni ham eslatish barobarida afv, ahd, kechirimlilik, vafo kabi fazilatlarni barcha uchun, ayniqsa, hukmdorlar hamda temuriy shahzodalar uchun targ‘ib va tarannum qilganligini anglash mumkin. 3). N. dostonning o‘n to‘rtinchi maqolatida murakkab talmeh turidan unumli foydalanib, 13 nafar shoh – “dodgaru mulk”larni nomma-nom sanaydi.

2. “F.Sh.” dostonida Sulton Husayn Boyqaroning o‘g‘li Abulfavoris Shohg‘arib Mirzoga bag‘ishlangan alohida faslda shahzodani madh etish b-n birga, uni ogohlikka, hushyorlikka undab yozgan shohbaytida:

Erursen shoh – agar ogohsen sen,
Agar ogohsen sen – shohsen sen, –

deya pand-u nasihat qilar ekan, uning ilm-fanni ishtiyoq va havas b-n istashi, o‘rganishini ulug‘lab va shunga da’vat etib, Ulug‘bek Mirzoning nomini tamsil qiladi va u ilm-fanga, dunyo tamadduniga qo‘shgan hissasini faxr-iftixor b-n shahzodaga eslatadi. Shu o‘rinda shoir *“Temurxon naslidin”* deya donishmand shoh Ulug‘bekning temuriy ekanligiga, ilmparvar, donishmand shoh sifatida rasadxona qurdirgani, samoviy jismlarni o‘rganib, jumladan, 1018 ta yulduz tadqiqoti haqidagi “Ziji Ko‘ragoniy” nomli mashhur ilmiy asar bitganiga ishoralar qiladi. N.ning matnda Ulug‘bek Mirzoni “*Temurxon naslidin”* deya yodga olishining ikki jihati bor. Birinchi-

dan, Amir Temurni eslash b-n unga hurmat ko‘rsatish bo‘lsa, ikkinchidan, Ulug‘bek Mirzo Amir Temurning sevimli nabiralaridan biri ekanligi. Uchinchidan, N. “L.M.”ning VII bobida Sulton Husayn Boyqaro sha’niga madhiyalar o‘qiydi, ayni paytda uning shohlar avlodidan ekanini ta’kidlash u-n “zoti poki” iborasini ishlatadi va uning tagli, taxtli shoh temuriyzoda ekani haqida ishora yo‘li b-n shunday yozadi:

Olam uza shoh zoti poki,
Darvesh zamiri dardnoki.

3. “S.S.”dagi Husayn Boyqaroga bag‘ishlangan IX bobda berilgan “*ham ato xon-u, ham ango ano xon”* xabarida ota tarafidan A.T.ning o‘g‘li Umarshayx Mirzoga, ona tarafidan esa Amir Temurning o‘g‘li Mironshoh Mirzoga nabiraligi, ya’ni ikki tomonlama temuriyzodaligiga, Bobur Mirzo tili b-n aytganda “karim ut-tarafayn, asil podshoh” ekanligiga urg‘u bergan.

4. Ma’lumki, N. “M.N.” tazkirasining yettinchi majlisini to‘laligicha temuriy ijodkorlarga bag‘ishlagan va A.T. o‘zi she’r aytishga mayl ko‘rsatmasa ham, fikrlarining isboti u-n boshqa shoirlarning bayt-u hikmatlarini joyi va vaqtini topib keltirishdagi mahorati tufayli Amir Temurni ham ular qatorida zikr etadi.

5. N. “S.”sining 1-bobida Amir Temurni *Temur – islompanoh shoh,* ya’ni *shohi g‘oziy* nomi b-n tilga oladi, uning “din va ma’naviyat rivojiga keng yo‘l ochgan”ligiga urg‘u beradi:

Qani Temur – shahi islompanoh
Ki, jahon oldi chekib xayli sipoh.

“S.”ning XVII bobida esa yashirin talmeh san’atini qo‘llab, A.T.ni *Ko‘ragon taxti, Ko‘ragon iqboli* birikmalari vositasida zikr etadi:

Anglading shohlig‘ ahvolini ham,
Ko‘ragon taxti-yu iqbolini ham.

6. “M.L.”da N. A.T.ni bir izohida esga oladi: “To mulk arab va sort salotinidin turk xonlarg‘a intiqol topti, Huloguxon zamonidin Sultoni sohibqiron Temur Ko‘ragon davronig‘acha turk tili bila andoq shoir paydo bo‘lmadikim, ta’rif qilg‘ucha asar zohir bo‘lmish bo‘lg‘ay. Va salotindin ham andoq nima manqul emaski, birov qoshida aytsa bo‘lg‘ay. Ammo Sulton sohibqiron Temur Ko‘ragon zamonidin farzandi xalafi Shohrux Sultonning zamonining oxirigacha turk tili bila shuaro paydo bo‘ldilar. Va ul hazratning avlod va ahfodidin ham xushtab’ salotine zuhurg‘a keldi: shuaro Sakkokiy va Haydar Xorazmiy va Atoiy va Muqimiy va Yaqiniy va Amiriy va Gadoiydeklar”.

7. A.T. Husayn Boyqaroga to‘rtinchi ota bo‘lsa ham, har juma kuni xutbada A.T. nomi b-n o‘qilishini eslatadi va matnda N. Sohibqironni *Temurbek*, *bek* shaklida ikki marta tilga olgan, Badiuzzamon Mirzoni otasiga munosabatda hushyorlik va ehtiyotkorlik b-n ish tutishi borasida ogohlantirgan. Chunonchi: “Mirzog‘a Temurbek to‘rtunchi nasabdur. Mirzo xutbada bekning otig‘a sharif ruhig‘a masjidi jome’da har odina kuni duo qildururlar. Bu ishda Mirzog‘a ham duodin o‘zga ne kelgay. Siz nishoningiz tug‘rosidin Mirzoning muborak otin chiqorursiz. Kerak Iroqdin Makka, balki Mag‘rib zaming‘acha olsangiz, bu voqea bo‘lmasa erdi. Agar Mirzoni zaif xayol qilibsiz – Tengri taolo qaviydur. Farzand kerak zaiflig‘ida otasig‘a xizmat mahallin toptim deb, jonsiporlik qilsa”.

8. “N.M.”da shayxlardan Bobo Sungu, Xoja Boyazid, Bobo Xokiy to‘g‘risidagi ma’lumotlarda ham A.T. faoliyatiga aloqador voqealar bayon qilinadi. Har uchala lavhada Sohibqironning turli jihatlari samimiyat b-n tilga olingan. Mardlikda, oddiylikda, zakiylikda, Alloh inoyatini qadrlab, har ishni o‘z o‘rniga qo‘yishda, ehtiyotkorlikda anbiyo va avliyo ruhidan madad-u himmat tilagani tasvirlanadi.

9. N. “H.A.”ning sakkizinchi maqolatini go‘zal fazilatlarning gavhari bo‘lmish vafo va ahd talqinini eng yuqori pardada ko‘rsatgan tarannumi va targ‘ibotiga bag‘ishlagan. U vafo haqidagi maqolatdan so‘ng tamsil qilib, “Ikki vafoliq yor...” hikoyatini keltiradi. Bu mashhur hikoyat-

ning bosh qahramoni qilib “To‘rt ulus xoni Temur Ko‘ragon” deya A.T. obrazini talqin qilgan va uning Shimoliy Hindistonni zabt etishi b-n bog‘liq lavha bitgan.

N.ning o‘z ijodi orqali Sohibqiron A.T. shaxsi, faoliyati, fazilatiga doir ayrim chizgilar b-n tanishtirishi aslida muhim adabiy-tarixiy hodisa, ya’ni adabiyot va tarix fanlari u-n qimmatli ma’lumot va dalillar deb baholash mumkin

Ad.: *Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ҳолоти Паҳлавон Муҳаммад. ТАТ. 10 жилдлик. 10-жилд. – Т., 2011; Абдураззоқ Самарқандий А. Матлаъи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. 2-жилд. Биринчи қисм. 1405–1429 йиллар воқеалари. Форс тилидан таржима, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи А.Ўринбоев. – Т., 2008; Муниддин Натанзий. Мунтахоб ут-таворихи Муиний. – Т., 2011; Ҳайитметов А. Темурийлар даври ўзбек адабиёти. – Т., 1996; Қодиров П. Тил ва эл: Темурийлар давридаги муттоз адабий тилимиз муаммолари; Ражабова Б. Навоий ижодида Амир Темур сиймоси. – Т., 2019.*

B.R.

AMIR TEMUR VA BOBO SUNGU (q.s.) – “N.M.”da 770 nafar shayx hayotidan lavhalar berilgan. Shayxlar b-n bog‘liq lavhalarda 79 o‘rinda hukmdorlar haqida ham realistik ta’riflar mavjudki, ularda N. adolat, haqiqat, raiyat haqqini bilish, haqiqatni anglash ehtiyojini yoritgan. Asarda Amir Temur uch, Husayn Boyqaro 29, Shamsiddin Eltutmish uch, Shohrux Mirzo Xorazmshoh Alovuddin Muhammad, Amir Sabuktegin, Hind podshosi Sulton Muhammad Xalaj ikki, Chingizxon bir o‘rinda tilga olingan, yana Sheroz, Hind, Xuroson, Movarounnahr, Rum, Iroq, Misr, Ozarbayjon, Turkiston shohlari ta’rifi keltirilgan. Asardagi shohlar faqat tarixda o‘tgan hukmdorlardir. Amir Temur podshohlik ishida aql-u farosat, shijoat, bahodirlik kabi xislatlarni qadrlagan. Tadbir, aql, ra’yni shijoatdan yaxshi deb bilgan. Sohibqironning olamgirligini N. Shayx Bobo Sungu ziyoratida ko‘rsatadi: “Bobo Sungu (q.s.) Zamon majzublaridin ermish. Andxud qasabasida bo‘lur ermish. Sohibi botin kishi ermish. Ramzlarin bilganlar natija topar ermish. Temurbek Xuroson mulki azimatig‘a yuruganda, Andxudqa etganda mashhurdurki, Bobo xidmatig‘a borg‘andur. O‘lturg‘ondin so‘ngra Bobo ilayida bir sufrada yaxna et erkandur. Qo‘yning yaxna to‘shin olib, Temurbek sari otibdur. Temurbek g‘oyati aqlu zakosidin debdurki, Xurosonni er yuzining ko‘ksi debdurlar. Ani Bobo bizga havola qildi, deb bashorat bila yurub, Xuroson mulkini olibdur...”. N.ning bu ma’lumoti xuddi Sharafiddin Ali Yazdiynikidek haqqoniyligi, xolisligi b-n ajralib turadi.

Tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma”da xuddi shu qiziqarli voqeani Eron viloyatiga qo‘shin tortib borilgan tovuq yili – 1381-y. fasli bahorida sodir bo‘lgan, deb sharhlaydi: “Hazrat Sohibqiron avji azimat va davlat bilan suvdin o‘tub, Andxudqa yetti. Va g‘oyat sidq va ixlosdin Bobo Sangukim, avliyolardin erdi, tavofg‘a bordi. Va Bobo Sungu, jazaba va holatikim, anda bor erdi, bir qo‘yning to‘shini Hazrat qoshig‘a tashladi. Ul Hazrat shu kun tutub, to‘shni olib dedikim: “Xurosonkim, yer yuzining to‘shi turur, bizga Alloh bergusu turur”. Va o‘shandoq bo‘ldi va andin saodat va iqbol bila yurudi”. N. “H.A.” dostonining “Xuroson kishvari bayonidakim...” nomli IX maqolatda “Xuroson yer yuzining ko‘ksidir” degan sifatlashga ishora qilgan:

Anga jahon ko‘ksi kelibdur sifot,
Anda ko‘ngul xittayi poki Hirot.

Har ikkala lavhada ham shayxning ramziy savoli, ramziy nazari, ramziy quvvatiga Amir Temurning sidq va ixlos hamda aql-zakovat b-n javob bergani bayon etiladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. – Т., 1997.*

B.R.

AMIR TEMUR VA BOBO XOKIY – N. Bobo Xokiy b-n bog‘liq o‘rinda Rum va Shom yurishida shayx siymosini ham, Amir Temur siymosini ham ko‘z oldimizda yengilmas, zabardast jangchi sifatida gavdalantiradi. Bu lavhaning yana bir e’tiborli jihati shuki, Shayx Bobo Xokiy 110 yoshida Husayn Boyqaro b-n ham Gitu tog‘idagi jangda ishtirok etib, zamon podshosi uning quvvatlashi b-n mulkni olishi, dushmanni daf’ qilishi ham voqeaning tadrijiy bayoni sifatida keltirilgan

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик. 10 жилд. – Т., 2011.*

B.R.

AMIR TEMUR VA XOJA BOYAZID – N. Xoja Boyazid haqidagi syujetda shayxning ma’naviy olamiga ramziy savolni – issiq holvani istab Amir Temur beradi, dasturxonga issiq holva tortib – ramziy javobni shayx beradi. “Atoning yaqin avlodidindur. Temurbek oning suhbatig‘a kelibdur va kelurda ko‘nglida kechurubdurki, bu yerning ma’no olamidin xabari bo‘lsa, bizga issiq halvo tortqoy. Ul muridlarg‘a halvoni xud buyurg‘on ekandur. Bek bila salomlashib ko‘rishgondin so‘ngra debdurki, (avval salom o‘rtasi taom va oxiri kalom!). Filhol halvoni tortturubdur. Bekka bu hol zohir bo‘lg‘och, murid bo‘lib, langar yasab, ko‘p avqof qilibdur”. Shayxning zakiyligini tan olgan Sohibqiron unga murid bo‘lib, langar yasab, vaqf mulki ajratib, o‘sha yerda istiqomat qilib turganlarni ham in’om-u ehson b-n siylagani aytiladi. Demak, o‘z davrida shohlar, xususan, Amir Temur shayxlarning xolis maslahatlariga quloq solgan. Shayxlar shohlarga tinchlik, osudalikka erishishda, musulmonlarning muhim ishlariga kafil bo‘lishda ma’naviy ko‘mak bergan; millat birligining asoslari buzilishiga qarshi turgan, deya olamiz

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

B.R.

AMIR HUSAYNIY – (vafoti 710 hijriy) so‘fiy, olim va adib. To‘liq oti Husayniy binni Olim binni Abulhusayn. “Kanz ur-ramuz”, “Zod ul-musofirin”, “Si noma”, “Nuzhat ul-arvoh”, “Sirot ul-mustaqim” singari asarlar va bir she’riy devon muallifi. Yuqoridagilardan Mahmud Shabustariyning mashhur “Gulshani roz” asarining yaratilishiga sababchi bo‘lgan. A.H. tasavvufning turli masalalariga oid o‘ttizdan ortiq savol b-n Iroq fozillariga murojaat qilgan va Shabustariy asari ana shu savollarga javob sifatida yozilgan. Shabustariy asarning “Kitobning yozilish sababi” qismida A.H.ni ta’riflaydi. Bu misralar A.H.ning ilm va ma’rifatdagi darajasi haqida tasavvur hosil qilishimiz nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir:

Yubormishdi buyuk zot, baski mashhur,
Ma’rifat va hunarda chashmayi nur.

Hama ahli Xuroson unga shaydo,
Ki davron nodiri ul, toq-u tanho.

Jahonning jonidur ul, nuri ayn ul,
Imomi solikin, sayyid Husayn ul.

Yubormish nomakim, ul bobi ma’ni,
Javob aytsin demish arbobi ma’ni...

A.H.ning barcha savollari kitobning “Amir Husayniy savollari” qismida batafsil keltirilgan.

N.ning “N.M.”da ma’lumot berishicha, A.H. G‘ur navohiysidagi Kiziv degan kentdan bo‘lgan. Tazkirada ov paytida sodir bo‘lgan va A.H. ning tavba qilishi hamda tasavvuf yo‘liga kirishi u-n turtki bo‘lgan bir voqea haqidagi rivoyat keltiriladi. Mazkur rivoyatga ko‘ra, u ov qilib yurganda bir kiyik oldidan chiqadi. A.H. uni otish

u-n o‘q-yoyni tortadi. Shunda kiyik tilga kirib, “Ey Husayniy, nega menga o‘q otasan? Tangri seni bu ish uchun emas, o‘z bandaligi va ma’rifati uchun yaratgan”, deydi va g‘oyib bo‘ladi. Bunga o‘xshash rivoyatlar boshqa bir nechta so‘fiylar zikrida ham uchraydi. Shuningdek, N. A.H.ning Hindistonda bo‘lgani va shayx Rukniddinning tarbiyatini olgani haqida ham yozadi. Keyinchalik u shayxning ruxsati b-n Xurosonga kelib, umrining oxirigacha Hirotda yashagan va N.ning ta’kidlashicha, butun Hirot xalqi unga murid va muxlis bo‘lgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Шайх Маҳмуд Шабустарий. Гулшани роз. – Т., 2013.*

E.O.

AMONAT (OMONAT) – vaqtinchalik saqlash u-n berilgan narsa. N. asarlarida lug‘aviy ma’nosidan tashqari, Ahzob surasining 72-oyatida ta’kidlangan ahdi amonat ma’noda qo‘llaniladi. “N.M.”da: “Albatta, Biz bu omonatni (shariati islomiyadagi toat va ibodatlarni) osmonlarga, yerga va tog‘-u toshlarga ko‘ndalang qilgan edik, ular uni ko‘tarishdan (mas’uliyatdan) bosh tortdilar va undan qo‘rqdilar. Inson esa, uni o‘z zimmasiga oldi”. Bu taqdir bila andoq tahqiq bo‘ldikim, Haq subhonahu va taolo maxluqotda bani odamdin sharifroq va biyikroq xalq qilmaydur, nevchunki, ma’rifatulloh ganjining amini va mahrami uldur”, – deyiladi. Arz-u samo, buyuk tog‘lar qo‘rqib qabul etmagan omonatni ahli zohir – Shariat, ahli botin esa – Ishq, deya tafsir etdilar.

Bo‘lg‘anidin sen eding barcha g‘araz,
Kim, yaratilmadi zotingg‘a evaz.

Ul amonatki, yer-u ko‘k bila tog‘,
Hamlig‘a to‘zmadi arz etkan chog‘.

Bu og‘ir yukka sen erding homil,
Sirru rozig‘a amin-u komil.

Inson kalimasi arabcha “nisyon” – “unutish” so‘zidan olinganligi ma’lum. N. ham g‘azallaridan birida buni alohida ta’kidlab, Xudo omonatini asramoqdan bahs yuritadi:

Chu derlar insonni mushtaq o‘ldi nisyondin,
O‘zinu ahdin unutmoq etar dalolat anga...

Birov amonatini asray olmas, archi erur
Xudoy amonatini asramoq havolat anga.

Ad.: *Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойимул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

Z.R.

AMONOVA Zilola Qodirovna (1977, Buxoro) – f.f. d-ri, dotsent. Buxoro davlat universitetida (1994–1998) tahsil olgan. “Hurufiylik va XIV–XIX asrlar o‘zbek mumtoz adabiyoti” mavzusida nomzodlik (2012-y.) “Nasimiy ijodining o‘zbek adabiyotiga ta’siri” mavzusida (2022-y.) doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

A.Z.Q.ning ilmiy izlanishlarida ulug‘ shoir Nizomiddin Mir Alisher ijodi alohida o‘rin tutgan. Xususan, nomzodlik ishining 2-bobi to‘laligicha N. ijodiga hurufiylik g‘oyalarining ta’siri masalasiga bag‘ishlangan. “Hurufiylik va badiiy ijod” nomli monografiyasi (2017-y.)da ham N. ijodiga Imomiddin Nasimiy g‘oyalari ta’siri yoritilgan. Shuningdek, M.Rajabova b-n hammuallifikda yaratgan “Navoiyshunoslik” o‘quv qo‘llanmasi ilmiy-ommabopligi hamda mazkur yo‘nalishda so‘nggi yillarda erishilgan yutuqlarning xulosalarini qamrab olganligi b-n qimmatga ega.

Shuningdek, muallifning “Vafo bog‘ida tufrog‘ o‘ldum ...”, “Harflarda ham hikmat ko‘p...”, “Ishq – inson hayotining mohiyati”, “Insoniy muhabbat – haqiqiy ishqqa ko‘prik demak”, “Navoiyning bir na’t g‘azali xuusida”, “Layli va

Majnun” dostonining hamd bobida shoir mahorati”, “Navoiy ijodida Nasimiy ohanglari”, “Alisher Navoiy she’riyatida hurufiylik g‘oyalarining badiiy ifodasi”, “Akademik litseyda Navoiy ruboiylarini o‘rganish”, “Alisher Navoiyning hurufiylik tariqatiga munosabati”, “Arabiy hikmatlarning Navoiy she’riyatidagi badiiy talqini” kabi maqolalari bo‘lib, n.shunoslik rivojiga hissa qo‘shgan.

Ad.: *Аманова З. Ҳуруфийлик ва XIV–XIX асрлар ўзбек муттоз адабиёти. – Т., 2012.*

S.O‘., Sh.T.

AMORIY (f.) – fil yoki tuyaning orqasiga odam tashish u-n bog‘langan kajava, mahmil. Arablar uni tuyaga o‘rnatganlar. Ot yoki ho‘kiz tortadigan arava ham ko‘zda tutiladi. Majozan tobut ma’nosida ham keladi. N. ijodida ham A. yuqoridagi ma’nolarda qo‘llangan. M-n:

Borg‘il, ey Majnunki, ul oy zavraqidek tez emas,
Jungkim Laylo amoriysin chekar homun aro.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Т., 1983; Фарҳанги забони тожики. Жилд 1. – М., 1969; Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 2. – Душанбе, 1988.*

E.O.

AMUDARYO. – Q. JAYHUN

“ANAL-HAQ” – “Men-Haqman”. Mashhur mutasavvif Mansur Hallojning so‘zi. Xudolik da’vosini ilgari surgan deb, shu so‘zi u-n qatl etilgan.

A. iborasini Halloj qachon va qayerda tilga olgan, degan savolga hozirgacha aniq javob yo‘q. Ayrim tadqiqotchilar Halloj A. demagan, uning o‘limiga “Tavosin” risolasidagi oddiy odamlar qabul qilolmaydigan ba’zi so‘zlari sabab bo‘lganini aytishgan. Lekin risoladagi “Men ko‘p hayron qolurmen: badanidagi bir qilning qanday qilib qora yoki oq bo‘lishini bilmagan, borliqni yaratib kamolga yetkazganni qanday bilmog‘i mumkin?” degan fikrdagi kishi, albatta, Xudolikni da’vo qilmaydi.

Agar shunday bo‘lganida, A. buyuk mutasavvifning timsoliga aylanib, asrlar mobaynida ma’no-mohiyati tasavvuf adabiyotida ma’qullanib, tez-tez qo‘llanib kelinmasdi. A. Allohga ham, islomga ham qarshi emasligi, unda tavhid va fano holi aks etganiga ishorat qilgan Xoja Ahmad Yassaviy turkiy adabiyotda birinchi bo‘lib Hallojni yoqlab chiqqan:

“Anal-Haq”ni ma’nosini bilmas nodon,
Dono kerak bu yo‘llarni bilsa purdon.

Ma’ni bilgan xos oshiqlar bo‘ldi jonon,
Bu sirlarni Arsh ustida ko‘rdum mano...
Shoh Mansurni “Anal-Haq”i bejo ermas,
Yo‘lin tobqon bizga o‘xshash gumroh emas.

Har nojinslar bu so‘zlardin ogoh emas,
Hamroh bo‘lub, bo‘yi Xudo oldim mano.

Darhaqiqat, “Anal-Alloh” deyish b-n A. deyish orasida hech muvofiq kelmaydigan farq bor. Chunki “Alloh” so‘zi Xoliqning zotiga, Haq esa Uning sifat va tajalliylariga beriladigan ismdir. Shuningdek, al-Haq Parvadigorning go‘zal ismlaridan bo‘lib, borlig‘i doim mavjud va haqiqiy ma’nosiga esa demakdir.

A. deganda Halloj “shunday bir maqomga ko‘tarilganki, uning nazarida Allohdan boshqa barcha borliq yolg‘iz Alloh – Haq edi. Bu qadar baland holga yuksalgan. Hallojning Allohning yolg‘iz bir ismi bo‘lmish “Haq – mavjud” kalimasini bilar, hatto o‘zining ham ismini xotirlay olmaydi”. Lekin ruhiy zavq, o‘zdan kechish holida aytilgan bo‘lsa-da, A. sakr mahsuli va bir shayx so‘zi emas, balki Halloj tasavvufiy tushunchalarining mehvaridir. Muallifning u vahdati vujudchilardan ham, vahdati shuhudchilardan ham ajratadi.

Alloh sifatlari b-n bezanib, ilohiy iroda sohibi bo‘lish insonni nafsoniy illat, bashariy ojizliklardan qutqazishini Halloj haqiqiy kamtarlik

b-n amalda isbotlagan edi. Jaloliddin Rumiy bu haqda shunday degan: “Anal-Haq” deyish ulug‘ kamtarinlikdir. Buning o‘rniga, “Men Haqning quliman” degan kishi ikki borliqni – o‘zi va Allohning mavjudligini tasdiqlagan bo‘ladi. Holbuki, “Men Haqman” degan o‘z borlig‘ini chetga surgani uchun “Anal-Haq” demoqda. Ya’ni, men yo‘qman, barchasi Udir. Allohdan boshqa borliq yo‘qdir. Bu so‘zda kamtarinlik ko‘proq emasmi?”

Aks holda, “A.” tushunchasi Farididdin Attor, Jaloliddin Rumiy, Ahmad Yassaviy, Mashrab kabi Sharqning o‘nlab zabardast san’atkorlari tomonidan badiiy talqin qilinib, Hallojga ehtirom “dorparastlik” darajasiga ko‘tarilmas, N. ning “N.M.”, “L.T.” asarlarida unga alohida joy ajratilmasdi. “Nasoyim”da Abusaid Abulxayrning “Halloj ulviy holdadir va aning zamonida mashriqdan mag‘ribgacha aningdek yo‘q erdi”, so‘zlari keltirilgan.

Mansur Halloj haqida ko‘p yuksak baho va e’tiroflar mavjudligini bilgani holda N. analhaqchilik g‘oyasini ochiq-oydin talqin va targ‘ib qilmagan.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик. 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Аҳмад Яссавий. Девони ҳикмат. – Т., 1991; Ҳужвирий. Кашфул маҳжуб. – Ўзтурк Я.Н. Ҳалложи Мансур ва “Китоб ут-тавосин” асари. – Истанбул, 1976; Ҳаққул И. Навоийга қайтиш. – Т., 2007. Ҳаққул И. Тақдир ва тафаккур. – Т., 2007.*

I.H.



ANBAR OTIN (taxallusi; to‘liq ismi: Farmonqul qizi (1870 – 1906) – shoira. Uning otasi Uvaysiyning jiyani bo‘lgan. Onasi Ashurbibi oddiy kosib qizi. A.O. Dilshodi Barno maktabida tahsil olgan va uning eng iste’dodli shogirdlaridan hisoblanadi. She’rlar ijod qilish b-n birga ustozi kabi mahallasidagi yosh qizlarga ta’lim va tarbiya bergani tufayli Otin nomiga ega bo‘ladi.

A.O. o‘zbek va tojik tillarida qalam tebratgan. Ijodda asosan Uvaysiyga ergashgan bo‘lsa ham, N.ning muhorat maktabidan ham saboq olgan. Muqimiy, Furqat, Zavqiy kabi o‘z davrining peshqadam shoirlari b-n ijodiy aloqada bo‘lgan. She’rlarida ularga qilgan murojaatlari mavjud, ba’zan, hatto ular b-n bahslashgan.

Manbalarda keltirilishicha, A.O. 35 yoshida baland minoraga chiqib, g‘azal o‘qiyotgan paytda johil boy xotinlaridan biri uni pastga uloqtirib yuboradi. Oqibatda 4 farzandning onasi bo‘lgan shoira shol bo‘lib, to‘shakka mixlanib qoladi.

O‘zbekcha she’rlar to‘plamidan 41 g‘azal, 4 muxammas, 1 qit’a, 1 masnaviy, 1 mustazod o‘rin olgan (1905). XX asr 70-y.larning boshida shoiraning 40 ga yaqin she’rdan iborat yana bir qo‘lyozma devoni, “Qarolar falsafasi” risolasi, 160 misralik “yakka bayt”lari topildi. Tojikcha she’rlarining taqdiri hozircha noma’lum.

A.O. she’rlari asosan ijtimoiy mavzularda bo‘lib, zamonaning adolatsizligidan, qora xalqning og‘ir ahvolidan shikoyat qiladi, ilm-u ma’rifatni ulug‘laydi. “Qarolar falsafasi” asarida ayollarning og‘ir qismati haqida hikoya qilinadi.

A.O. N.ni o‘ziga ustoz deb biladi:

Agar ustozi adabni istasang, Anbar otin,
Sen Navoiy ta’limini doim mutolaa qil.

Shoira she’rlarida buyuk salafining u yoki bu darajagi ilhombaxsh ta’siri izlarini ko‘ramiz. Jumladan, uning:

Har kim amali el foydasig‘a jori emasdur,
Oning yuzini umringda san bir yo‘la ko‘rma.

bayti N.ning mashhur:

Naf’ing agar xalqqa beshakdurur,
Bilki, bu naf’ o‘zungga ko‘prakdurur.

misralarining bevosita bo‘lmasa ham, bilvosita ta’siri ko‘zga tashlanadi.

Agar N. “Xalqqa qancha ko‘p foydang tegsa, bu narsaning o‘zingga foydasi ko‘proq”, – desa, A.O. “Elga biror foydasi tegmaydigan kimsaning turqini ko‘rmay qo‘ya qolganing durust”, – deydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Анбар Отин. Шеърлар. – Т., 1963; Зебуннисо, Дилшод, Анбар отин шеъриятидан. – Т., 1981.*

E.O.

ANVARIY (taxallusi; to‘liq ismi: Avhadiddin Ali ibn Muhammad ibn Is’hoq Anvariy Abivardiy (1105, Abivard − 1187, Balx) − fors-tojik shoiri. Tus madrasasida tahsil olib, o‘z davrining asosiy fanlari, jumladan, nujum, handasa, riyoziyot, musiqa, hikmat, tib va falsafani chuqur o‘zlashtiradi. U madrasada o‘qib yurgan vaqtidayoq Xovariy taxallusi b-n she’r yozgan. 20 yoshidayoq Sulton Sanjarga bag‘ishlangan qasidasi b-n uning e’tirofiga sazovor bo‘lib, Amir Muizziy rahbarligidagi saroy shoirlari safidan joy oladi. Sulton Sanjarning inqirozidan so‘ng saroyni tark etib, Marvdan Nishopurga, keyin Balxga boradi va shu yerda vafot etadi.

A.ning adabiy merosi 15 ming baytga yaqin bo‘lib, 250 qasida, 337 g‘azal, 557 qit’a, 472 ruboiy va boshqa she’rlardan iborat. U Abulfaraj Runiyga ergashib, iroqiy uslubni yanada rivojlantirdi.

“Dono, fasohatli, fozil va kamolot egasi bo‘lgan, – deb yozadi shoir haqida Abdurahmon Jomiy. – She’rlari husn-u kamoli va nazmning lutfu jamoli uning butun ulug‘ligidan bir qatra, xolos. Uning she’rlari mashhur, devoni mastur”.

“M.Q.”da N. uni “nazmida majoz tariqi adosi g‘olib” shoirlar guruhiga kiritadi. “X.” nihoyasida ustod so‘z san’atkorlari qatorida hurmat b-n tilga oladi. “M.L.”da A. she’rlari bo‘yicha bahslarni hal qilib berganini aytadi

Ad.: *Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Девони Анварий. – Теҳрон, 1364 (ҳ.-ш.); Абдураҳмон Жомий. Баҳористон (Ш.Шомуҳамеов тарж.). – Т., 1997; Ҳомидий Ҳ. Кўҳна Шарқ дарғалари. – Т., 1999.*

E.O.

ANDALIB (taxallusi; ismi: Nurmuhammad Andalib (1711 – Toshhovuz – 1780) – shoir. O‘zining otashnafas g‘azal-u murabba’lari va xalqona dostonlari b-n turkiy xalqlar orasida mashhur bo‘lib, asarlari qo‘lma-qo‘l bo‘lib o‘qilgan shoirlardan biri A. Toshhovuzning Qoramozi qishlog‘idan bo‘lib, ayrim ma’lumotlarga qaraganda, turkmanlarning tuyachi urug‘idan chiqqan.

A.ning umri asosan Urganch va Xivada o‘tgan. Xiva madrasalarida tahsil olgan. Buxoroda ham o‘qigani haqida ayrim taxminlar mavjud.

A. XVIII asrning boy adabiy meros qoldirgan shoirlaridandir. Uning to‘liq devoni topilmagan. G‘azal, murabba’, muxammas janridagi she’rlari turli bayozlar tarkibida keladi. “Layli-Majnun”, “Yusuf-Zulayho”, “Boboravshan”, “Zaynularab”, “Malikayi Mehrinigor”, “G‘arib-Shohsanam”, “Nasimiy”, “O‘g‘uznoma”, “Sa’di Vaqqos”, “Qissai Fir’avn” kabi dostonlari qissaxonlik kechalarida xalq tomonidan sevib o‘qilgan. Ular tarkibida ham ko‘plab g‘azal, murabba’, muxammas, mustazod, musaddas, masnaviy janridagi she’rlar keladi.

A. eng ko‘p taxmisni N. g‘azallariga bog‘lagan – 20 ga yaqin. Bu dalil uning buyuk salafi ijodini yaxshi bilgani va undan ta’sirlangani, ijodiy o‘rganganini bildiradi. Ayni paytda, N.ning badiiy barkamol, mashhur g‘azallariga taxmis bog‘lash b-n o‘zining uning munosib izdoshi ekanini ham namoyon etgan. Shuningdek, u N. ning “Ollida” radifli g‘azaliga musamman ham bog‘lagan

Ad.: *Ўзбек адабиёти (Мажмуа). 4 жилдлик, 4-жилд. 2-китоб. – Т., 1960. Ўзбек адабиёти (Мажмуа). 4-жилдликка илова. 5-жилд. 1-китоб. – Т., 1966; Нурмухаммат Андалып. Лирика. – Ашгабат, 1976; Нурмухаммет Ан-*

далып. Дессанлар. – Туркменистан, 1991; Андалып. Сайланан эсерлер. Ашгабат, 1963; Абдуллаев В.А. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т., 1980; Тоҳиров Қ. Октябрдан аввалги ўзбек-туркман адабий алоқалари проблемасига доир. – Т., 1988; Мередов А. Нурмухаммат Андалыбын, лирикаси // Нурмухаммат Андалып. Лирика. –Ашгабат, 1976; Мулкаманов А., Назаров Г. Сез уссады // Нурмухаммет Андалып. Дессанлар. Туркменистан, 1991; Қурамбоев К. А. образлари Фурқат талқинида // Адабий жараён. Ижод масъулияти. Адабий алоқалар (Сайланма мақолалар). – Т., 2009.

E.O.

ANDIJON – O‘zbekiston Respublikasi Andijon viloyatining ma’muriy, iqtisodiy va madaniy markazi, mamlakatning yirik industrial shaharlaridan biri. A. qadimda Davan podsholigi, so‘ng Kushon va Parkana davlatlariga qaragan. A. Buyuk Ipak yo‘lidagi muhim kentlardan biri bo‘lgan. Bu yo‘lning ahamiyati XI asrda Qoraxoniylar hukmronligi davrida yuksalgan. XI–XII asrlar A. Farg‘ona vodiysining yirik savdo va hunarmandchilik markaziga aylangan, ammo Chingizxon istilosi davrida vayron qilingan. XIII asr oxirlarida qayta tiklanib, XIV asrning 70-yillari shahar Amir Temur davlatining Farg‘ona viloyati tarkibiga kirgan va uning o‘g‘li Umarshayxga mulk qilib berilgan. XV asrning 2-yarmidan Temuriylar davlatiga qarashli Farg‘ona viloyatining poytaxti bo‘lgan. A. Umarshayx Mirzo davrida shaharda xo‘jalik, fan, madaniyat yuksalgan. A.da tug‘ilib voyaga etgan Zahiriddin Muhammad Bobur bu shaharni o‘z ko‘rkamligi b-n Samarqandga yaqin turishini yozadi.

“M.N.” tazkirasida N. Samarqandda birga tahsil olgan do‘stlari Mavlono Safoiy, Mavlono Yusuf singari andijonlik shoirlarga bag‘ishlab bitgan fiqralarda A. nomini qayd etib o‘tgan. Chunonchi: “Mavlono Safoiy ...soda yigit edi, o‘zidek soda odamlarning suhbatini xush ko‘rar edi”, “Mavlono Yusuf “Badiiy” taxallus qilur erdi. Ul ham Andijondindur. Mavlono Safoiy bila bo‘lur erdi. Faqir tahsil uchun Samarqandg‘a borg‘onda, ul Andijondin keldi va anda faqir bila bo‘lur erdi. Sig‘ari sin jihatidin she’rida xomlik bo‘lsa faqir isloh qilur erdim...”. Ma’lum bo‘ladiki, N. bu yosh qalamkashga she’riyat sirlarini o‘rgatgan.

N.ning yana xabar berishicha, Yusufshoh Badiiy keyinchalik she’riyatda kamolotga erishib, Xusrav Dehlaviyning “Mir’ot us-safo” qasidasiga javob yozgan, muammo qoidalariga oid risola yaratgan.

Yana A. nomi N.ning “M.Q.” asari matnida Mavlono Yusufni Yusuf Andogoniy (Andijoniy) deb tilga olgan. Umuman, shoir A.ni Bobur tug‘ilib o‘sgan qadimiy shahar sifatida yaqindan bilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т.,2011; ЎзМЭ. 1-жилд. – Т., 2000.*

B.R.

ANDXUND (Andxoy) – Shimoliy Afg‘onistondagi uncha katta bo‘lmagan viloyat. XVI asrning boshlariga qadar, aniqrog‘i 1506-y.gacha Husayn Boyqaro davlati tarkibida bo‘lgan. Lekin bu yerdagi iqtisodiy, madaniy hayot davlatning boshqa hududlari b-n qiyoslaganda ancha sust edi. N.ning “M.N.” tazkirasida zikr etilgan besh yuzdan ortiq shoirlar orasida faqat birgina andxundlik – Mavlono Tarxoniy borligi shundan dalolat beradi. N. A.da bo‘lgan. “Xam.M.” asarida u A.da ekanida Abdurahmon Jomiydan xat olganini qayd etgan va maktubni to‘laligicha keltirgan. “N.M.” tazkirasida N. andxundlik majzub Bobo Sungu haqida ma’lumot bergan. Uning murid va xalifalaridan Bobojon bobo va Bobo Ibrohimlarni tilga olgan. Ularning qabrlari A.da ekanini ta’kidlab, mozorning obodligini ham aytib o‘tgan. Bu so‘zlar N.ning A.da bo‘lgan paytida ushbu joyni ham ziyorat qilganini ko‘rsatadi.

Sulton Husayn Boyqaro hukmronligining dastlabki yilida Andxundda Hisor hukmdori Sulton Mahmud b-n to‘qnashuv bo‘lgan.

N. A.da obodonchilik ishlarini ham amalga oshirgan. Xondamir “Makorim ul-axloq”da N. barpo etgan hovuzlar sirasida A. hovuzini qayd etgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамсат ул-мутаҳаййирин. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Хондамир. Макорим ул- ахлоқ . – Т., 1967.*

Q.E.

ANISIY I – (XV asr) shoir. N. "M.N."ning ikkinchi majlisida A. haqida ma'lumot beradi. A.ning kam asar yaratgan shoirligini va boshqalarning she'rini o'ziniki, deb yuritishini tanqid qiladi. N. shoirning bir matla'sini keltira turib, agar bu matla' biror shoirniki bo'lsa, siqilishi o'rinli emas, deydi. A. Hirotda dafn etilgan.

Bundan ko'rinadiki, N. shoirlarga baho berishda ularning ma'naviy qiyofasiga alohida diqqat b-n qaraydi. N. A.dagi boshqalar she'rini o'zlashtirish xususiyatini katta nuqson deb bilgandi va shu haqida o'z qarashini aniq ifodalab o'tadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамсат ул-мутаҳаййирин. ТАТ. 10 жилдлик. 5 жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик. 9 жилд. – Т., 2011; Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Т., 1967.*

S.G'.

ANISIY II (Taxallusi; to'liq ismi – Abdulahad Azizov) (1900 – Andijon – 1970 Toshkent) – shoir, olim, matnshunos, tarjimon. O'zi tug'ilgan Paxtaobod tumanining Xayrobod qishlog'i maktabida boshlang'ich ma'lumot olib, keyin Andijon, Buxoro, Xo'jand, Qo'qon madrasalarida tahsilini kamolga yetkazgan. 1927-y.da madrasini tugatib, Andijonga qaytadi va tirikchilik vajidan to'quvchilik, mahsido'zlik, ignachilik kasblari b-n shug'ullanadi, savdo sohasida xizmat qiladi. Ta'bi nazmi bo'lgani u-n Qori Zokir, Hofiz, Mahjuriy, Habibiy, Sayfiy, Xurram, Ulfat kabi turli soha kishilarini o'zida birlashtirgan Andijon adabiy muhitiga yo'l topadi va chuqur ilmi va noyob iste'dodi b-n tezda tanilib, A. taxallusini oladi.

Madrasa tahsili mobaynida arab va fors tillarini, Sharq mumtoz adabiyotini yaxshi o'rgangan A.ni 1938-y.da Mahjuriy, Habibiy, Ulfat kabi safdoshlari b-n birga ulug' shoir va mutafakkir N. tavalludining 500 yilligini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish munosabati b-n tashkil etilgan Navoiy qo'mitasiga ishga taklif qilishadi. Bu yerda u O.Sharafiddinov, G'.G'ulom, H.Zarif, P.Shamsiyev, Bokiy, H.Olimjon, S.Mutallibov, M.Shayxzoda, A.Abdulla, A.Borovkov, A.Andreyev kabi o'sha davrning ilg'or ziyolilari b-n hamkorlik qiladi va N. asarlari matnlari ustida ishlab, mumtoz adabiyotimizning izohli lug'atini tuzishga ko'maklashadi, "Ch.D."ni nashrga tayyorlash u-n Uyg'un va S.Abdullalarga maslahatchilik qiladi.

U Muhayyir merosini nashrga tayyorlaydi. Sharq mumtoz she'riyatida keng qo'llangan kinoya va majoz so'zlar ustida izlanishlar olib borib, 500 dan ziyod shunday so'zlarning izohini tuzadi. Bunda u asosan N. "X."si va "X.M."ga tayanadi. XIII–XIV asrlarda yashagan, Dehliga borib muqim bo'lib qolgan Badriddin Chochiy qasidalarini o'rganib, mavzuga oid maxsus risola yozadi va mazkur qasidalarni o'zbekchalashtiradi. Abdurahmon Jomiy, Mirzo Bedil, Mirzo G'olib, Mirzo Tursunzoda she'rlaridan namunalar ham tarjima qilgan.

Bir umr N. asarlarini nashrga tayyorlash, ulug' shoir she'rlarida qo'llangan kinoya va majozlar lug'atini tuzish b-n shug'ullangan A. ilmiy faoliyatida N. adabiy merosi muhim o'rin tutadi. U N. ijodini o'rganishga bag'ishlangan "Alisher Navoiy", "Navoiy ijodida so'z san'atlari" nomli maqolalar yozib, ularda buyuk shoir asarlarining badiiyati va N.ning badiiy mahorati qirralarini tahlil qiladi. "Alisher Navoiy" maqolasida, jumladan, quyidagilarni o'qiymiz: "Yozgan adabiy va axloqiy asarlarini o'qisangiz, o'zingizni bir olam ma'no ichida sayr qilib yurganday his etasiz. Navoiyning butun diqqat-e'tibori chuqur va nozik ma'nolarni chiroyli so'zlar bilan bezab, xalq ko'ziga jilvagar qilishdir. Kecha-kunduz shuning fikr-u xayolidan xoli bo'lmagan desak, xato bo'lmaydi. Chunki u kishining nazdida chi-

royli ma'no go'zal bir sevgilidirki, Navoiy uning husniga butunlay maftun bo'lib, boshqa huzur halovat-u nafsoniy lazzatlardan voz kechgan oshiqdir. Navoiy hech kim ishlatmagan ajoyib yangi ma'nolarni tasarruf qilinmagan bir qiz obrazida tasvirlab, ularni rang-barang so'z libosi bilan yasantirib, husniga oroyish berish to'g'risida" obrazli tarzda yozadi. Sharq barcha buyuk so'z san'atkorlari kabi u ham "so'zning ham ma'nosi, ham lafzi chiroyli bo'lishini farz deb bil"gan.

"She'r va she'rxonlik" maqolasida esa qo'shiqchilar tomonidan mumtoz matnlar, jumladan, N. asarlaridagi ba'zi so'zlar buzib. noto'g'ri ijro etilayotganini aniq misollar asosida ko'rsatib beradi. Bundan tashqari, u N.ning 525 yillik yubileyi munosabati b-n "Navoiy" nomli g'azal bitadi. Unda, jumladan, shunday misralarni o'qiymiz:

Navoiy safhayi avroqa so'z injularin termish,
U durlar qadr-u qimmat birla go'yokim
birilyon(t)dur...

Uning ijodining ta'siri birla har suxan ahli,
Navoiy madhida bulbul kabi sayrab g'azalxondur.

A., shuningdek, Xurramning N.ning "o'ynar" radifli mashhur g'azaliga tatabbu' tarzida bitilgan g'azaliga Sayfiy, Ulfatlar b-n mushoiramuxammas yozadi. "Ishq ohangari zanjiri junun ishlar edi" misrasi b-n boshlanadigan g'azaliga tatabbu' o'laroq Navoiy qo'mitasidagi Uyg'un, S.Abdulla, Mahjuriy, Sayfiy, Ulfat, Bokiy kabi safdoshlari faoliyati haqida hazil g'azal bitadi. Unda, jumladan, shunday satrlar bor:

"Chor devon" gulshani ichra kezibon bir necha yil,
Qilibon sayr-u tamosho kun-u tun ishlar edik...

Gohi Shirin tog'ida tog' qazibon chun Farhod,
Gohi Layli cho'lida shakli junun ishlar edik.

Bu g'azal va muxammaslar o'sha davrdagi Navoiy qo'mitasi faoliyati haqida muayyan tasavvur beradi.

Ad.: *Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy. TAT. 10 jildlik. 1-4 jildlar. – T., 2011; Anisiy A. Kulliyot. – T., 2020.*

E.O.

ANUSH – Shisning katta o'g'illaridan biri. Otasining vasiyati b-n boshqaruvni o'z qo'liga olgan.

N. "T.A.H."da yozishicha: "Anush payg'ambar emas erdi, ammo valoyatdin (valiylikdan) nasibi bor erdi. Va odil va saxiy kishi erdi. Atbo' (tobelarini) va avlodin Odam (a.s.) dinig'a da'vat qildi", deydi. Uning aytishicha, Anush birinchi bo'lib xurmo daraxtini ekkan, sadaqa qilish odatini rasmiylashtirgan. Adolatli bo'lgani uchun uning zamonida baraka, mo'l-ko'lchilik ziyoda bo'lganki, odamlar qo'y, ho'kiz va boshqa hayvonlarining son-sanog'ini bilmagan. "Haq taolo hisobdin ortuq mol karomat" qilgani u-n har mingta hayvondan birini ayirib, muhtojlarg'a berishni buyurgan.

N.ning keltirishicha, "Tarixi Ja'fariy"da bitilganki, uning zamonida Suvod mulkida bir ajdaho paydo bo'lgan, xaloyiqqa ko'p zararlar yetkazgan, A. borib, u ajdarhoni Odam (a.s.) jannatdan olib chiqqan hassa bilan urib o'ldirgan. Va aytishlaricha, Muso (a.s.)ga o'sha hassa tekkan. Anush zamonida jinlar odamlar orasiga kirib, zarar yetkazar ekanlar.

N. Anushning o'n ikki farzandi borligi, Qinon degan bosh o'g'lini valiahd qilib, vafot qilgani va otasining yonida dafn qilingani haqida ma'lumot bergan. A.ning "Tarixi Ja'fariy"da uch yuz yil boshqa tarixiy manbalarda to'quz yuz oltmish besh yil umr ko'rganligi aytilgan.

A.dan keyin hukmronlik va saltanat ishlarini uning o'g'li Qinon ibn Anush, undan keyin Mahloyil ibn Qinon undan so'ngra Yazid ibn Mahloyillar davom ettirishadi. Yaziddan suryoniy payg'ambar Idris (a.s.) tug'iladi.

N. Anush haqidagi ma'lumotni shunday yakunlaydi:

Bayt:

Ming yil dog'i sursa edi davronni Anush,
Ham aylagusi edi ajal jomini no'sh.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Обидов Р. Пайғамбарлар тарихи исломият тарихидир. 2 жилдлик. 1-жилд. – Т., 2005.*

S.R.

ANHORI ARBA' – to‘rt ariq yoki to‘rt irmoq. A.A. iborasi tilga olinganda, odatda, jannatdagi to‘rt ariq nazarda tutilgan. Ahmad Yassaviy bu haqda:

Tavba qilib Haqqa yongan oshiqlarg‘a,
Uchmog‘ ichra to‘rt arig‘da sharbati bor, –

deydi. N. ushbu iboradan haqiqiy oshiq ahvolini gavdalantirishda foydalangan:

Har ko‘zimdin goh su, goh qon oqar ko‘yung aro,
To‘rt ariq oqqan masallik ravzayi rizvonda su.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т.,2011.*

I.H.

ANOSIRI ARBA'A – 4 unsur, 4 zid deb atalgan odam va olamning ilk yaratilishiga tegishli ibora. A.A. tuproq, suv, olov va shamol birligini aks ettiradi.

Ilmda yoritilishicha, 4 unsur tushunchasi dastlab yunon faylasuflari tomonidan ilgari surilgan. Islom faylasuflaridan ayrimlari uni qo‘llab-quvvatlashgan bo‘lsa, Ibn Sino yangicha qarash va fikr-mulohazalar b-n boyitgan. Tasavvuf va tasavvuf adabiyotida ushbu tushunchaga keng e’tibor qaratilib, xilma-xil tarzda talqin qilib berilgan. Chunonchi, odam farzandi 4 unsurdan yaratilgan ekan, shularga muvofiq ravishda unga ruhi nabotiy, ruhi jismoniy, ruhi hayvoniy va ruhi insoniy deyilgan to‘rt ruh ham ato etilgan. Nafs ham shunday. Ma’lumki, nafs martabalaridan dastlab Hakim Termiziy so‘z yuritib, ularni 4 turga: nafsi ammora, nafsi mulhama, nafsi lavvoma, nafsi mutmainnaga ajratgan. Nafsning bu martabalarini so‘fiylar A.A.ga qiyoslab, odamning tub mohiyatini yoritishga intilishgan. M-n, nafsi ammora olovga, nafsi lavvoma shamolga, nafsi mulhama suvga, nafsi mutmainna tuproqqa o‘xshatilgan.

Sharqning qator ulug‘ san’atkorlari singari N. ham insoni komillikni to‘rt unsur ta’siridan qutulishda ko‘radi:

To‘rt unsur qaydidin to chiqmag‘aysen, naf’ emas,
Osmoniy to‘rt daftarni tutkaykim yod bil.

Shoir boshqa bir g‘azalida esa ma’nan va ruhan falakka ko‘tarilib, samoviy sayrga noil bo‘laman desang, “badan anosirining chorgohi”ni chetga surgil, deydi:

Desang falakka chiqay, foniy o‘l anosirdin,
Nedinki, ruhingdadir chormix bu to‘rtov.

Zero, inson “anosir” muammosini zarur zaylda mushohada qilib, kuch va imkoni etgani qadar to‘g‘ri hal qilmasa, hatto valilik maqomiga qadam qo‘yganida ham botinidagi chirkinlik, tubanlik va hayvoniylik ofatlaridan qutulib bilmaydi. Chunki Imom Rabboniyning ta’kidlashicha, “valilik maqomida ham badandagi unsurlar buzg‘unchilik va inkorchiligini hech o‘zgartirmay, isyonkorlikdan ham yiroqlashmaydi. M-n, olov unsuri o‘zini nafsi mutmainnaga mansub hisoblab, xayrli ekanini iddao etadi va kibrlanishdan to‘xtamaydi. Shuningdek, tuproq unsurining pastligi sababli vujud qilajak ishidan pushaymonlik tuymaydi. Sen xuddi shu tarzda boshqa unsurlarni ham qiyoslab haqiqatini angla!” Balki mana shu sababdan ham N. A.A. mavzusiga “X.” dostonlarida ham maxsus to‘xtalib o‘tadi. Shu ma’noda “H.A.”dagi so‘zlar alohida ahamiyatga molik:

Eyki vujuding uyi xoshok erur,
Zor taning xud bir ovuch xok erur.

Nech bu xoshokka o‘t urmog‘ing,
Necha bu tufrog‘ni sovurmog‘ing.

Urma ul o‘tni xas-u xoshokinga,
Quyma bu suvni bir hovuch xokinga.

Hosil aning o‘ti o‘t-u suyi o‘t,
Rangi o‘tu lam’ayi diljo‘yi o‘t.

Kimki bu to‘rt o‘t aro bo‘lg‘ay asir,
Barq guzargohida yong‘oy harir.

Qaysi badan ichra bu to‘rt yonib,
To‘rt anosir tafidan o‘rtanib.

Yo‘qki bo‘lub to‘rt anosir adan,
Aql-u hush-u din ila islom ham.

Ruh pok gavhardan yaratilgani u-n uning mohiyati va xususiyati vahdat – birlikdan iborat. Chor unsurdan bino etilgan vujudning tarkibini kasrat – ko‘plik tashkil qiladi. Ruh b-n badan orasidagi bosh ziddiyat ana shu. Bu qarama-qarshilikni N. “L.T.” dostonida Muhammad (s.a.v.) ning “o‘zni o‘zlik qaydidan” xalos etish holatini shunday tasvirlaydi:

Yel-u tufrog‘-u o‘t-u suvdin orib,
Ham men-u sen ham ul-u buldin orib.

Borgohi qurb aro topib maqom,
Mayl etib ondin yaqinroq ham xirom.

Aylabon chun raf’ etmish ming hijob,
Qolmay o‘zga moni’yi oning hijob...

Oshiqning ma’shuqi azal b-n yaqinligiga to‘siq bo‘ladigan pardalar zulmoniy va nuroniy deb nomlangan. Zulmoniy hijob vujuddagi moddiy to‘siqlardir, nuroniy hijob ruhga tegishli. Zulmoniy pardalar o‘rnini nuroniylari egallashi u-n nafsning ahvoli b-n inson jiddiy qiziqib, tama, riyo, kibr, hasadga qarshi jang e’lon qilmog‘i kerak. Shunda vujudning farqli narsalarni istashi, farqli narsalardan yuzaga chiqadigan xususiyatlarni bir joyga jamlab, to‘xtab, shahvat shahvatlik, hirs hirslik, g‘azab g‘azablik kuchini yo‘qotadi. Vujuddagi eng oliy poklanish va o‘zgarishga N. Muhammad (s.a.v.)ning me’rojdagi holatini namuna qilib ko‘rsatadi:

Tanidan to‘rt gavhar naqshi borib,
Bo‘yi olti jihot to‘ning chiqorib...

Chiqorib o‘zligi tufrog‘idin gard,
Ne o‘zlikkim, o‘zidin ham bo‘lub fard.

Inson moddiy va ma’naviy borliqdan tarkib topgan degan fikr hanuzgacha hokimdir. Haqiqatda esa inson 3 turli mavjudlik – modda, nafs va ruhdan yaralgan. Chunki nafs va ruh boshqa bir narsa bo‘lib, bir emas, ikki haqiqatni tamsil etadi.

Xoja Ahmad Yassaviyning xurosonlik muridi Hoji Bektosh Vali: “Alloh insonni uch xil qorong‘ulikdan yaratib, uch xil mavjudlik bilan munavvar etgan. Birinchisi, chor unsur – tuproq, suv, havo va olov qorong‘uligi bo‘lib, aql nuri bilan oydinlashtirgan. Ikkinchisi, jaholat zulmati bo‘lib, ilm nuri bilan ravshanlashtirilgan. Uchinchisi, nafs zulmati bo‘lib ma’rifat nuri bilan yorishtirilgan”.

Vujuddagi chor unsur qorong‘uligini munavvarlashtiruvchi aql oddiy, ya’ni aqli maosh emas, balki aqli kulldir

Ad.: *Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик. 6-8 жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик. 9-жилд. – Т., 2011; Имом Ғаззолий. Ботинийликнинг моҳияти. Анқара, 1993; Муҳиддин Арабий. Фусус ал-ҳикам. – Истанбул, 1990; “Мактаботи Раббоний”да шариат ва тариқат. – Истанбул, 2014; Ҳожи Бектоши вали. Мақолот. – Т., 2000; И.Ҳаққул. Аносири арбаъа: моҳият ва шеърий талқин. “Ўзбек тили ва адабиёти” журнали. 2015. 6-сон.*

I.H.

ANVORI SAB’A – yetti turli rang. Bu ranglar nafsning poklanishi, bir martabadan ikkinchisiga yuksalishini aks ettiradigan va solikning siyratida paydo bo‘ladigan moviy, sariq, qirmizi, qora, yashil va oq ranglardir. Anvori sab’aning oxiri rangsizlik, ya’ni shaffof nur hisoblanadi.

Najmiddin Kubroga ko‘ra zangori rang solikning tavba yo‘liga kirib, shariat qonun-qoidalari-

ga to‘la amal aylash nishonasi. Sariq rang qalbda muhabbat hissining uyg‘onishi, Allohga yaqinlik belgisi. Qizil rang ruhning yuksalishi va ma’rifat shavqining ochilish timsoli. Oq rang qalbning musaffolashuvi. Yashil rang esa ko‘ngilning g‘ayb olami go‘zalliklariga g‘arq bo‘lishi. Haqdan xalqqa qaytish holining ramzi – bu qora rang. Yana Kubro tasnifi bo‘yicha, oq rang – islomni, sariq rang – iymonni, zangori rang – ehsonni, yashil rang – ishonchni, ko‘k rang – iqon (to‘la ishonch)ni, qizil rang – irfonni, qora rang hayrat holini aks ettiradi.

Ruh ham shaklan goh qirmizi, goh sariq, goh qora, ba’zan oqqa burkanib, turli-turli rangda ko‘ringanda moddiylikni tamsil etgan. Chunki rang beruvchi moddadir. Biroq modda ruhga to‘siq bo‘lolmaydi, ruh istagan paytda istagan joyga bora oladi. Ruhning parvozi tafakkur kabi ko‘p oson va yengildir. Tafakkur qayerda bo‘lsa, ruh ham o‘sha yerda. Anglaydigan, tushunadigan ruh bo‘lib, tafakkur unga ergashib, ruhdan rang oladi. Shuning uchun anvori sab’a tushunchasi barcha ulug‘ so‘fiy va mutasavvif shoirlar singari N. she’riyatida ham mushohada ilgarilashni aks ettirgan. Buning tasavvuri uchun shunday bir voqeani xotirlatish mumkin. Ahmad Aflokiyning naql qilishicha, Sulton Valad bir kuni otasi, ya’ni Mavlonoga shunday deydi: “Bundan ancha muqaddam Shayx Salohiddin g‘aybga oid rang va mushohadalardan so‘zlab, ranglardan xabar berar va “mana zangori rang daryosni ko‘rdim, moviy rang daryosini ko‘rarmen, anga yashil rang mavjlangani mavjlangan, sariq rangdan hech ko‘z uzolmayman, qaro goh oq rang daryosi to‘lqinlangani to‘lqinlangan”, derdi. Endi hech bir rangni tilga ham olmaydi. Nega bunday bo‘ldi? Shunda Mavlononing javobi quyidagicha bo‘lgan ekan: “Rangdan so‘z yuritgan paytida u bir-birining ortidan zuhurlangan ranglarni ko‘rardi va ularning har biridan ayri-ayri xabar berardi. Hozir esa ilohiy nurlar daryosiga shu qadar g‘arq bo‘lganki, ulardan hech ham bahs yuritmaydi, xabar ham bermaydi, tasavvur ham etmaydi”. Umuman, soliklar nurni uchga ajratishgan: birinchisi, ko‘rar, ammo ko‘rsatmas nuri basar. Ikkinchisi, ko‘rsatib, o‘zi ko‘rmaydigan, quyosh, oy, yulduz va olovdagi nur. Uchinchisi, Haq taoloning nuridirki, ham ko‘rar, ham ko‘rsatar”. N. she’riyatida ta’riflanib, yuzlab she’rlaridan o‘rin olgan Nur, Haq nuri va Nuri Muhammadiyadir.

“Nafsning siyohligi (kirligi, ifloslanishlari) butkul barham topgach, – deydi Najmiddin Doya, – oq rang zuhurlangan. Ruhning nuri qalb safosi bilan birlashuvi hamon yashil bir rang hosil bo‘lgay. Qalb tamoman soflashib, shaffoflashgach, quyosh kabi sobit bir nur sobitlashar”.

Rangga munosabat va rang tasvirlaridan ko‘zlangan maqsad mumtoz ijodkorlarning hammasida ham o‘xshash bo‘lmaganligini ham nazardan soqit etmaslik kerak. M-n, axiylik maslagiga mansub shoirlar sariq va qirmizi rangni maqbul ko‘rishmagan. Chunki “Futuvvatnoma”larda izohlanishicha, “Hech bir payg‘ambar qizil va sariq kiymadi, negaki, ular Fir’avni lainning to‘ni bo‘lgan”.

Ko‘k, oq, qora va yashil ranglar javonmardlar u-n juda maqbul ranglar edi. Yashil rang ularning mudarris, hodi va hukmdor tabaqalari u-n xos sanalgan. Oq rang esa axiylarda qalam sohiblari va hofizlarning xos rangi hisoblangan. N.ning ishonchi malomatiylikka yuqori bo‘lganligi bois ham bunaqa fikr-qarashlarni qabul qilmaganidek, targ‘ib va tashviq ham qilavermagan. Bu fikrning yorqin bir misoli shoirning

Xil’atin to aylamish jonon qizil, sorig‘, yashil,
Shu’layi ohim chiqar har yon qizil, sorig‘, yashil,

matla’si b-n boshlanadigan va ham zohiriy, ham botiniy mohiyat mahorat b-n uyg‘unlashtirilgan g‘azalidir.

Xullas, anvori sab’a mazmun mohiyatidan qancha keng xabardor bo‘linsa, N. she’riyatining rang olamiga zavq va ilhom b-n kirib, yangi-yangi ruhoniy, hayotiy, insoniy haqiqatlarni kashf aylash o‘shancha osonlashib boradi.

Ad.: *Нажмиддин Кубро. Тасаввуфий ҳаёт. – Т., 2008; Нажмиддин Доя. Мирсод ул-ибод. – Теҳрон, 1996; Афлокий. Манокиб ул-орифин.*

2-жилд. – Истанбул, 1986; Имом Ғаззолий. Мишкот ул анвор. – Истанбул, 1994; Ҳаққул И. Навоийга қайтиш. – Т., 2007; Ўтанова С. Навоий ғазалиётида ранг символикаси. – Т., 2011.

I.H.

ANSORIY ABDULLOH (taxallusi; to‘liq ismi: Abu Ismoil Abdulloh ibni Abulmansur Muhammad Ansoriy Hiraviy (1006−1088, Hirot) − fors-tojik mutasavvif shoiri, tariqat piri. Piri Hirot va Shayxulislom nomlari b-n katta shuhrat qozongan A.A. “N.M.”da o‘z tilidan ma’lumot berilishicha, to‘rt yoshida maktabga boradi. 9 yoshida Abu Mansur va Joruziy asarlarini ko‘chiradi. 14 yoshidan ilmiy davralar ishtirokchisiga aylanadi. Maktab tahsili davridayoq she’r yoza boshlagan. Mumtoz va zamondosh arab shoirlarining 100 ming bayt she’rini yod bilgan. Quvvai hofizasi shunchalik kuchli ediki, qalamining ostidan chiqqan biror narsa yodidan chiqmas edi, 300 ming hadisni roviylari b-n yod bilgan.

O‘zidan keyingi fors-tojik adabiyotiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan: didaktik dostonchilik, saj’li nasr va tasavvufiy she’riyatning shakllanishi va taraqqiyotini uning nomi b-n bog‘laydilar. Yusuf va Zulayho qissasini “Anis ul-muridin va shams ul-majolis” (“Muridlar do‘sti va majlislar quyoshi”) nomi b-n nazmga solgan hamda 14 majlisdan iborat mazkur asarida tasavvuf ramzlarini badiiy shaklda dostonning asosiy obrazlari vositasida bayon qilgan. Bu yo‘l keyinchalik Hakim Sanoiy va Nosir Xisrav kabi zabardast so‘z san’atkorlari tomonidan muvaffaqiyat b-n davom ettirildi.

N.ning A.A.ga ixlos-e’tiqodi baland bo‘lgan. “N.M.”da “har yerdakim Shayxulislom voqe’durur, mutlaq murod ondindur”. Umrining oxirida barcha rasmiy mansablardan iste’fo berib, Abdulloh Ansoriy mozori jorubkashligini bo‘yniga olgani bejiz emas.

“L.T.”da esa “Ko‘ngilning xushligi − uning Haqqa mashg‘ulligi” mazmunidagi Ansoriy b-n bog‘liq bir naqlni keltiradi:

“Xoja Abdulloh Ansoriyki, aql −
Aylay olmas ming ishidin birni naql.

Dedikim: “Uldur ko‘ngulning xushligi,
Faqr yo‘linda kiromivashligi −

Kim ko‘ngulda ondin o‘zga bo‘lmag‘ay,
Yodida jonondin o‘zga bo‘lmag‘ay.

Har ko‘ngul mundoqdur − oni bil ko‘ngul,
Yo‘qsa bahr-u kon esa, ondin to‘ngul.

Ko‘ngul uldurkim, anga maskandurur,
Yo‘qsa gulshan bo‘lsakim, gulxandurur”.

N. “H.A.”, “M.N.”, “M.Q.” asarlarida ham A.A. ta’rifi, u b-n bog‘liq naql va so‘zlarni keltiradi. “N.M.”ning asosi esa uning “Tabaqot us-so‘fiya” tazkirasiga borib taqalishi ma’lum. Jomiy uni keyingi 4 asrdagi yangi ma’lumotlar b-n to‘ldirilgan holda tarjima qilgan bo‘lsa, N. unga turkiy mashoyixlar haqidagi ma’lumotlarni qo‘shgan.

A.Habibullayevning yozishicha: “Navoiy ijodida uning Ansoriyga munosabati uch xil ko‘rinishda kuzatiladi: 1) Abdulloh Ansoriyning tarixiy shaxs, ya’ni shayxulislom sifatidagi faoliyati; 2) Abdulloh Ansoriy ijodkor sifatida uning adabiy merosi, obrazlaridan o‘z g‘oyalarini ilgari surish u-n foydalanish; 3) Abdulloh Ansoriy mutafakkir sifatida; uning falsafiy dunyoqarashiga bo‘lgan munosabat alohida-alohida o‘z aksini topgan”.

Ruboiylari o‘zbek tilida ham tarjima bo‘lgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик. 6 жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик. 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик. 9 жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик. 9 жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик. 10 жилд. – Т., 2011; Хожа Абдуллоҳ Ансорий. Муножотнома. – Теҳрон, 1385 (ҳ.ш.); Абдуллоҳ Ансорий. Рубоийлар // 333 рубоий. – Т., 1991.; Донишмандлар туҳфаси. – Т., 2009; Минг бир рубоий. – Т., 2009; Навоий замон-*

дошлари хотирасида (тузувчи Б.Аҳмедов). – Т., 1985; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988; Ҳабибуллаев Н. Ансорий Алишер Навоий талқинида // "Гулистон", 1989, № 12.

E.O.

ARAB ADABIYOTI VA NAVOIY – N. ning arab xalqlari tarixi, madaniyati, arab va arab tilida O‘rta va Yaqin Sharq olim va shoirlari yaratgan ilmiy va badiiy asarlarni qiziqib o‘rganishi uning yoshlik vaqtidanoq boshlangan. U Qur’on va hadis ilmlarini ham nihoyatda puxta egallagan edi. Hirot va Mashhadda bilimini kamolga yetkazgan shoir siyosiy voqealar taqozosi b-n Samarqandga ketishga majbur bo‘ldi. Bu yerda ham u o‘z bilimini chuqurlashtirdi va ijodiy faoliyatini davom ettirdi. Shoirning ko‘proq vaqti o‘sha davrning mashhur olimi Abulays Fazlulloh oilasida va uning madrasasida o‘tgan. Abulays Fazlulloh Samarqandning "a’lomul ulamosi" (olimlar olimi) edi. N. uning boy kutubxonasidan samarali foydalandi, uning xonaqohida tinimsiz tahsil qilishi N.ga arab tilini, fiqh, shariat ilmlarini, Qur’on va hadislarni, arab nasriy va nazmiy adabiyotini nihoyatda chuqur o‘rganish imkonini berdi. 1469-y. N. yana Hirotga ko‘chib ketadi.

Arab adabiyoti, ayniqsa, Qur’on va hadislarga ishora qilish N. asarlarining deyarli hammasida kuzatiladi. Eng avval uning asarlariga qo‘yilgan nomlarga bir ko‘z tashlaylik: "X.M." tarkibidagi 4 devon "G‘.S.", "N.Sh.", "B.V.", "F.K.", "H.A.", "S.S.", "S.I", "T.M.A.", "M.N.", "M.Q.", "Xam.M.", "M.", "V.", "Ch.H.", "S.M." kabilarning hammasiga arabcha nom berilgan.

N. bu asarlar nomini turkiy tilda ham bemalol atayverishi mumkin edi. Chunki ular o‘zbek tilida yozilgan edi. Lekin shoirdagi arab tiliga bo‘lgan hurmat, muhabbat tufayli va o‘sha davr an’analariga muvofiq o‘z asarlariga arabcha nomlarni qo‘ydi. N.ni biz ko‘p vaqt dahriy qilishga harakat qildik. Vaholanki, u islom diniga qattiq e’tiqod qo‘ygan, imonli va diyonatli kishi bo‘lgan. O‘sha vaqtda Markaziy Osiyo va Xurosonda keng tarqalgan naqshbandiya tariqatining Xoja Ahror va Jomiylar qatorida eng yirik vakillaridan va rahnamolaridan bo‘lgan. Uning Qur’on, hadis va boshqa diniy-ta’limiy asarlarni yaxshi bilishi, albatta, shoir ijodiga katta ta’sir ko‘rsatgan edi.

N. "H.A." asarining birinchi bobini "Bismillohir rahmonir rahim" tavsifiga, bir bobini hamd (Allohni ulug‘lash, to‘rt bobini munojot, Allohdan najot so‘rash) va besh bobni na’t (payg‘ambarni maqtashga) bag‘ishladi. Bu boblarda Qur’on va hadisga anchagina ishora qilingan, ahloq-odobga oid ko‘plab misollar ham keltirilgan. Afsuski, 15 jilddik N. asarlari to‘plamida bu II bob butunlay tushirib qoldirilgan va shunday izoh berilgan: "Garchi bu an’anaviy boblarda shoirning ma’lum darajada ba’zi bir falsafiy, ijtimoiy fikrlari aks etsa-da, lekin bu boblar dostonga bevosita aloqador emas. Ommaviy nashrlarda bunday boblarga ehtiyoj tushmas" (Asarlar, 6-tom, 245-bet). Shu asarning XXI-XXV boblari ham olib tashlangan. Xuddi shunday 15 jildlik N. asarlarida "F.Sh."ning avvalgi besh bobi, "L.M."ning avvalgi to‘rt bobi, "S.S."ning avvalgi yetti bobi, "S.I."ning 14 bobi tushirib qoldirilgan.

"X.M.", "M.L." va boshqa asarlarda ham ahloqiy-tarbiyaviy, diniy-falsafiy ahamiyatga ega bo‘lgan kirish so‘zlar va asarlar ichida uchragan juda ko‘p Qur’on, hadis va diniy rivoyatlardan olingan jumlalar, hikmatli so‘zlar olib tashlangan. N. o‘z asarlarida Qur’on oyatlari va hadisdan olib ishlatgan hikmatlardan ayrim misollar keltiraylik. "H.A."dan:

Sun’ilig‘i balchig‘in aylab xamir,
Lutf ila aylab ani hay’at nazir.

Maz.: Yaratganning qo‘li uning loyini qorishtirib, lutf ilan uni shakllantirdi.

Bu yerda "Sun’ullahi" – Allohning san’atkorligi, yaratish qudrati" ("Naml" surasi, 88-oyat) va Tangri odamni loydan yaratganligi haqidagi oyatlarga ishora qilinyapti ("Zumar" surasi, 71-oyat).

Xutbam johin qadar insho qilib,
"Ya’muru bil adl" ila tug‘ro qilib.

Maz.: Taqdir martabang xutbasini yozganda, “adolat bilan ish ko‘rishga” buyuradi.

Shukr qilib aylamasang ushtulum,
Yusbdur o‘zikim, “laaziydannakum”.

Maz.: Shukr qilsang-u, zo‘rlik ko‘rsatmasang, albatta, (ne’matingizni) orttiraman. “Laaziydannakum” (“Ibrohim”, surasi, 7-oyat).

Chun dedi Tengriki “Qulu vashrib-u”,
Yonida dediki, “valo tusrifu.

“Qulu vashribu va lo tusrifu” (“Yeng va iching, isrof qilmang”) (“A’rof” surasi, 31-oyat).

Naf’idin el virdi duo joningga,
“Yamkusu fil-arzi” sening shoningga.

“Fayamkasu fi-l-arzi” – Yer yuzida qoladi (“Ra’d” surasi, 17-oyat).

Muncha niam berdi-yu qildi raqam,
Muniki: “Bishshukri tadimun niam”.

“Vashkuru ne’matallahi” – Alloh ne’matiga shukr qildilar (“Nahl” surasi; 14-oyat).

“H.A.”da Qur’on oyat va rivoyatlariga ishora qiluvchi juda ko‘p so‘z va iboralar mavjud: “Qone’” – qanoat qiluvchi (83-b.); “yavmul hisob” – hisob kuni, qiyomat (93-b.), “man qanaa” – “Kim qanoatli bo‘lsa...” (94-b.); “Baytul haram” – Ka’ba (146-b.), “Eram bog‘i” (146-b.), Bu Lahab (Abu Lahab) payg‘ambar dushmani (154-b.); “Xayru-n-nos” – Insonlarning eng yaxshisi, ya’ni payg‘ambar (151-b.); Qorun (90, 93-betlar) va Muso hassasi haqidagi (141-b.) rivoyatlar.

“Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati” IV jildining 248-267-betlarida “Arabiy birikma va iboralarning izohi hamda talqini” sarlavhasi ostida N. asarlarida uchragan Qur’on oyatlari va hadislar keltirilgan. N. Muhammad Rasulullo (s.a.v.) hadislarini ham juda yaxshi bilgan. Ulardan odob-axloq, ilm-fan, ota-onaga hurmat, halol mehnat, rostgo‘ylik, do‘stlik kabi masalalarga oidlarini o‘z asarlarida ko‘plab ishlatgan. M-n, “H.A.” da payg‘ambarning “Xayrul umuri avsatuho” (Ishlarning eng yaxshisi o‘rtachasidir) degan hadis keltirilgan.

Muhammad Rasulullo (s.a.v.)ning mashhur “Chihil hadis” (“Qirq hadis”)lariga Sharqning ko‘p shoirlari murojaat etganlar. Jomiy “Chihil hadis” asarini forsiy tilda yozgan bo‘lsa, N. ham “Qirq hadis” ruboiylarini o‘zbek tilida yaratdi. Bu tanlangan hadislar hayotiy, axloqiy masalalarga bag‘ishlangan.

Ma’lumki, arab klassik she’riyatining vazn tuzilishi qoidalari VIII asr 2-yarmida mashhur adib va tilshunos Abdurahmon Xalil ibn Ahmad al-Farohiy (100-/718170-/786 yoki 175/791) tomonidan tartibga solingan va vazn haqidagi bu fan aruz nomini olgan. Xalil ibn Ahmad aruzni mustaqil ravishda ishlab chiqdi va bu arab she’riyatida she’r vazni haqida yagona qoida bo‘lib qoldi. Arab aruzini keyinchalik Yaqin Sharqning ko‘p xalqlari va O‘rta Osiyo xalqlari qabul qildilar. Fors-tojik adabiyotida Shams Qays Roziy, Xoja Nasr Tusiy va Abdurahmon Jomiylar aruz haqida asarlar yaratdilar. N. bularning asarlaridan samarali foydalangan. Xalil ibn Ahmad 16 bahrni ishlab chiqqan edi. Forsiynavis shoirlar bularni qabul etib, ularga qo‘shimcha yana uchta bahr qo‘shdilar: g‘arib, qarib va mushokil, 16 bahrdan ba’zi birlarini esa biroz o‘zgartirgan holda qo‘lladilar. N.dan ancha ilgari aruz turkiy xalqlar she’riyatiga kirib kelgan edi. M-n, XI asrda yozilgan “Qutadg‘u bilig” aruzda yozilgan edi. N. she’r tuzilishini qabul qilib, o‘z she’riyatida undan samarali foydalandi. Shu b-n turkiy xalqlarda birinchi marta o‘zining “M.A.” nomli mashhur asarini yozdi. Bunda aruzning turkiy xalqlar she’riyatidagi 14 ta bahri va ularning zihoflari haqida tushuncha berib, o‘z she’rlaridan misollar keltirdi. Asarning so‘zboshisida N. Qur’onning ayrim oyatlari aruzda yozilganini aytib, quyidagi misollarni keltiradi: “Lan tanolul birra hatto tunfiqu mimmo tuhibbun” – “To yaxshi ko‘rgan narsalaringizdan sadaqa qilmaguningizcha yaxshilikka erisha olmaysizlar” (Oli-Im-

ron surasi, 92-oyat) ramali musaddasi mahzufda (Foilotun foilotun foilun) yoki “Val-mursaloti urfan, fal osifoti asfan” – “Yaxshi niyat bilan yuborilgan (farishta)lar nomiga qasam, qattiq esuvchi (shamol) bilan qasam” (“Mursalot” surasi, 1-2- oyatlar) muzori’i musammani axrab (ma’fulu fo’ilotun maf’ulu fo’ilotun) bahrida yozilgani qayd qilingan. Demak, N. “M.A.”ni yozishda Xalil ibn Ahmad asaridan va arab adabiyoti namunalaridan unumli foydalangan. Zero, shoirning bu asari o‘zbek va boshqa turkiynavis shoirlar ijodida juda katta ahamiyat kasb etdi. Aruzda yuzlab dostonlar va hisobsiz she’rlar yaratildi. Inqilobdan keyin aruzga qarshi katta hujumlar bo‘lishiga qaramay, So‘fizoda, Chustiy, Habibiy, Sobir Abdulla, Charxiy kabi ayrim iste’dodli shoirlar bu vaznda o‘z g‘azallarini yaratdilar.

N. ijodiga qadimgi mashhur yarim afsonaviy arab shoiri Qays ibn Mulavvax – Majnun (vaf. 700 yil atrofi) va uning mahbubi Layli haqidagi rivoyatlar ham juda katta ta’sir ko‘rsatdi: qadimgi Amir qabilasidan bo‘lib, butun Layliga bo‘lgan sof muhabbatini kuylagan va sevgisi tufayli “Majnun” (aqldan ozgan, jinni) nomi b-n xalq orasida afsonaga aylanib ketgan shoir Qays va uning mahbubi Layli haqidagi mashhur rivoyatlar ta’sirida o‘zbek tilida o‘zining o‘lmas asari “X.” dostonlaridan biri “L.M.”ni yaratdi. Bu asar o‘zbek va turkiy tilda so‘zlovchi xalqlar adabiyotida qanchalik shuhrat qozongani, umuman, ulkan ahamiyati haqida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar yaratilgan. Juda ko‘p shoirlar N.ga ergashib, o‘z “Layli va Majnun”larini yozdilar.

Arablarning qabila boshlig‘i, saxiyligi b-n shuhrat qozongan Xotami Toyi haqidagi rivoyatlar ham N. ijodida o‘z aksini topgan. Shoir asarlarida juda ko‘p arab adabiyotida mashhur bo‘lgan diniy va dunyoviy asarlar zikr qilingan. Muhammad (s.a.v.)ni madh etib kuylagan mashhur shoir Hasson ibn Sobit (670-y.i vafot etgan) “M.L.”da va payg‘ambar chakmoni haqida mashhur “Qasidayi burda”ni yozgan Da’b ibn Zuhayr “M.N.”da eslatib o‘tilgan.

Xorazmlik buyuk arabshunos olim, tilshunos va Qur’on tafsirchisi Zamaxshariy asarlari ham N. ijodiga katta ta’sir ko‘rsatgan. “M.Q.”da uning “Kashshof”, “X.M.”da “Miftoh” va “Talxis” asarlarini eslatib o‘tgan va ulardan foydalangan.

Fors-tojik adabiyotidagi mavjud an’anani davom ettirib, N. ham o‘z devonini arabcha misra b-n boshlaydi:

Ashraqat min aksi shamsil-ka’si anvor ul-xudo,
Yor aksin mayda ko‘r deb jomdin chiqdi sado.

Bulardan tashqari, N. g‘azallarida arab adabiyoti Qur’on, hadis va boshqa arab tilida yozilgan asarlardan yana juda ko‘p iboralar, ayrim so‘zlar kiritib ketilgan, ba’zan Qur’on oyatlari va hadislar baytlar mazmuniga o‘zbek tilida singdirilib yuborilgan.

Shunday qilib, buyuk N.ning ulug‘vorligi qadimgi arab adabiyoti, Qur’on, hadislar, arab tilida ijod etilgan yuzlab adabiy-tarixiy asarlarni mukammal bilgan va ulardan o‘z asarlarida samarali foydalanib, turkiy tilda so‘zlovchi xalqlarni bu boy adabiyotdan bahramand qilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик. 1-4 жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик. 6-8 жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик. 9 жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. ТАТ. 10 жилдлик. 10 жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. ТАТ. 10 жилдлик. 10 жилд. – Т., 2011; Абдуллаев И. Араб адабиёти ва Навоий. – Т., 1991. №1.*

S.R.

ARAB XATI – arabiy yozuv o‘qish va yozishda ma’no tashish vazifasidan tashqari badiiy zavq manbai ham bo‘lgan. Shuning u-n imoratlar, mato va amaliy san’at buyumlariga turli bezaklar tushirishda, manzara hosil qilishda arab yozuvidan foydalanilgan. Shimollik arablar “nabtiy” yozuvida yozardilar, ammo iroqliklar va shomliklar iroqiy xat b-n yozganlar. Vaqt

o‘tishi b-n nabtiy (nabatiy) xatdan nasx xati paydo bo‘lgan. Iroqiy, ya’ni suryoniy xatdan esa ko‘fiy xati kelib chiqqan. Islom dini paydo bo‘lgandan keyin arab olamida “ko‘fiy” xati deb atala boshlaydi, VII asrning 2-yarmidan islom dini va arablar butun Sharq olamiga, keyinroq Afrika, janubiy Yevropa va Osiyo o‘lkalarida tarqalishi natijasida arab yozuvi ham ular b-n birga kirib bordi. O‘sha davrda makkaliklar bemalol yozish va o‘qishni bilganlar. Qur’oni Karim ko‘fiy xatida yozila boshlanadi. Mashhur xattotlardan Ali ibn Abi Tolib va Talha ibn Ubaydulloh Umayya davrida Qutba ismli xattot ko‘fiy xatini 4 qalamda yozishni ixtiro qiladi. Undan keyin Zahhob ibn Ajalon va Is’hoq ibn Hammodlar va undan keyin Abu Ali Muhammad ibn Ali ibn Hasan ibn Muqla va ibn Bavvob izdoshlaridan, abbosiylar davrida yashagan Jamoliddin Yoqut xatga yangiliklar kiritadi, ko‘fiy xatdan o‘sib chiqib shakllangan va xattotlar tarafidan e’tirof etilgan xat “suls”, “nasx”, “muhaqqaq”, “rayhoniy”, “tavqi’”, “riqo’”, deb atalgan olti uslubdir. XIV asr (Amir Temur zamonida) oxirlarida “nasta’liq” paydo bo‘ladi. Buxorolik matnshunos olim Sadr Ziyo arab yozuvi haqida quyidagi ma’lumotlarni keltiradi: Dastlab, Idris payg‘ambar yozish u-n oyning bir oydagi 28 manziliga qarab 28 harfli xatni ixtiro qiladi. Bu xat ibroniy xat bo‘lib, u to Muhammad (s.a.v.) davrilarigacha iste’molda bo‘ladi va o‘sha davrdan boshlab ko‘fa olimlari “ko‘fiy” xatini ixtiro qiladilar. Ali ibn Abu Tolib ko‘fiy xatini go‘zal shaklga keltiradi. Shuning u-n fanda hazrati Ali “Abul-xattotin” deb nomlangan. Vaqt o‘tishi b-n Ko‘fiy xati o‘z o‘rnini nasx xatiga bo‘shatib beradi va Qur’oni Karim nasx xatida ko‘chirila boshlanadi, shuning u-n nasx “qur’oniy xat” deb ham atalgan. Nasx xatidan keyin “ta’liq” xati iste’molga kirib keladi, bu xat b-n ko‘pincha farmonlar va maktublar yozilgan. Amir Temur davrida kelib, mashhur xattot Mirali Tabriziy nasx b-n ta’liqni qo‘shib, “Nasta’liq” nomli xat ixtiro qiladi. Nasta’liq xatida tarixiy va badiiy asarlar ko‘chirilgan. N. ijodida ham A.X.ga murojaatlar mavjud. M-n:

Qil Navoiyni hamul xat birla, yo Rab, ozim,
Kim, biror yonidin ayrildi o‘ttuz olti xutut..

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик. 1-4 жилдлар. – Т., 2011; Муродов А. Марказий Осиё хаттотлик санъати тарихидан. – Т., 1971; Мунировв Қ., Носиров А. Навоий қўлёзма асарлари каталоги. – Т., 1970; Ҳакимов М. Шарқ манбашунослиги луғати; Камолиддин Беҳзод (О.Усмонов) ва унинг наққошлик мактаби. – Т., 1977; Маҳдий Баёний. Аҳволи ва осори хушнависон. – Теҳрон, 1358 ҳ.й; Хаттотон (Мавлоно Холмуҳаммад). – Кобул, 1383 ҳ.й.*

Muh.A.

ARASLI Hamid Mamedtag‘i o‘g‘li (1909-y, Ganja – 1983-y., Boku) – f.f. d-ri, akad., Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasining muxbir a’zosi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi (1968). Olimning ilmiy faoliyatida N. va Ozarbayjon adabiyoti masalasi katta qismni tashkil etadi. 1940-y.dan boshlab mazkur mavzudagi ma’ruza va maqolalari har ikki davlat matbuotlarida e’lon qilib borilgan. N. ijodi va shaxsiyatiga bo‘lgan muhabbat olimni O‘zbekiston b-n doimiy aloqaga chorlagan. Bu hamkorlik natijasida A.H.M. O‘zbekistonning V.Zohidov, V.Abdullayev, Oybek, G‘afur G‘ulom, H.Sulaymon kabi ko‘zga ko‘ringan yirik olimlari b-n doimiy hamkorlik olib borgan. Ilmiy-ma’naviy tadbirlarda faol ishtirok etgan. Dunyo kutubxonalarida saqlanayotgan N., Husayn Boyqaro asarlarining manbalarini o‘rganib, yangi ma’lumotlar asosida maqolalar e’lon qilgan.

A.H.M. O‘zbekistonda N. tavalludi arafasida o‘tkazilgan an’anaviy konferensiyalarning doimiy ishtirokchisi bo‘lgan (1961–1980). Jumladan, “Alisher Navoiy va Kishvariy” mavzusidagi ma’ruzasida esa o‘sha yillarda yangi aniqlangan Kishvariy devonida N. g‘azaliga bog‘langan 5

ta muxammas haqida axborot beradi. A.H.M. Sulton Ali Mashhadiy tomonidan ko‘chirilgan Husayn Boyqaroning 6 ta qo‘lyozma asari – Istanbul, London, Parij va yurtimizda saqlanayotganini aytib, ularda N. b-n Husayn Boyqaro o‘rtasidagi munosabatlarni yorituvchi muhim ma’lumotlar borligini qayd etadi. N. asarlarining ilk tarjimalari, “Gul” dostonining turkcha varianti va bu dostonga N.ning munosabati, yozma adabiyotdagi “Gul va Alisher” dostonida shoirning ma’naviy qiyofasi, fojiali muhabbati, fazilatlariga bag‘ishlangan turli mavzularda ma’ruzalar qilgan. Shuningdek, “Nasimiy va Navoiy” mavzusidagi ma’ruzasida Ozarbayjon shoiri Nasimiy Shirvoniyga N.ning munosabati borasida asosli mulohazalarni o‘rtaga tashlaydi, N. “M.N.”, “H.P.M.” asarlarida Nasimiyga yuksak baho berganini aytadi.

A.H.M.ning N. va Ozarbayjon adabiyotiga bag‘ishlangan maqolalari “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalining 1960-80-yy.dagi sonlaridan o‘rin olgan. H.Muhammadxo‘jayevning “Alisher Navoiy va Ozarbayjon adabiyoti” maqolasida H.A.ning mehnatlari alohida e’tirof etilib, N.ning zamondoshi, asarlaridan o‘rin olgan ozar shoiri Kishvariyning qo‘lyozma devoni O‘zR FA ShI qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgani, A.H.M. shoir haqida maxsus maqola e’lon qilgani aytiladi.

A.H.M. “Navoiy merosini o‘rganish tarixidan” (1960) nomli maqolasida N. ijodiy merosining ozarbayjon, rus va turk olimlari tomonidan o‘rganilishiga e’tibor qaratadi. Jumladan: “Navoiy merosini o‘rganish yolg‘iz o‘zbek olimlarininggina vazifasi emas. Navoiy buyuk bir adabiy maktab boshlig‘i sifatida, Nizomiy kabi, bir necha xalqlarning adabiyotiga kuchli ta’sir ko‘rsatganligidan uning ijodini o‘rganish ham keng bir sohani tashkil etadi. ... Chunki Navoiy tojik, eron, hind madaniyatida buyuk bir madaniyat homiysi sifatida mashhur bo‘lsa, ozarbayjon, turkman, qozoq, tatar, turk, qoraqalpoq xalqlari adabiyotida esa o‘zining kuchli ta’siri b-n mashhurdir, shu tufayli ham ular N.ni o‘rganadilar”, kabi fikrlari olim tomonidan N. ijodiga nisbatan berilgan to‘g‘ri bahodir. Maqolada yana olim Kishvariyning N. b-n ijodiy aloqada bo‘lgani; Fuzuliy adabiy maktabi tavakkulida N. ijodining muhim rol o‘ynagani; Sodiq Afshorning “Majmaul havos” tazkirasi “M.N.” ta’sirida yozilganini dalillaydi. A.H.M. N. ijodini o‘rganishga bel bog‘lagan o‘zbek olimlari b-n teng mas’uliyatga ega olim sifatida izlanishlar olib boradi. Turkiyada topilgan “Sab’at abhur”ning muallifi N. ekanligini dalillaydi. Husayn Boyqaro “Risola”sini nashrga tayyorlab, kirish so‘zi b-n “Husayn Boyqaro risolasi haqida” nomi b-n “O‘zbek tili va adabiyoti” (1966) jurnalida e’lon qiladi. Yana olimning “Navoiy va Ozarbayjon adabiyoti” (1968), “Ahdiy Bag‘dodiy Navoiy haqida” (1977) nomli maqolalari e’lon qilingan. N. tavalludining 525 yilligi tantanalari kunlarida A.H.M.ga O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi (1968) unvoni berilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик. 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ҳолоти Паҳлавон Муҳаммад. ТАТ. 10 жилдлик. 10-жилд. – Т., 2011; Арасли Ҳ. Навоий меросини ўрганиш тарихидан. Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1960. №3; Навоий ва Озарбайжон адабиёти. Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1968. №3; Муҳаммадхўжаев Ҳ. Алишер Навоий ва Озарбайжон адабиёти. Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1972. №2; Нагиева Ж. Навоий ижодининг Озарбайжонда ўрганилиши. Ўзбек тили ва адабиёти. – Т.; Ҳайитметов А. Ҳамид Орасли. Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1969, 2-сон; Эркинов С. Таниқли навоийшунос: (Ҳамид Орасли) // Ўзбекистон маданияти. – Т., 1979, 20 февраль.*

Ab.H.



ARASTU (Aristotelning sharqona nomi; “T.A.H.” asarida N. uni Aristotolis tarzida zikr etadi) (mil. av. 384\83, Stagira – 322/321, Yevbeya o., Xalqida) – mashhur yunon faylasufi. Afinaga borib, Platon akademiyasi-

da tahsil ko‘radi. Keyin Makedoniya shohi Filipp taklifiga ko‘ra shahzoda Aleksandrga murabbiylik qiladi. Mil. av. 335-y.da Afinaga qaytib, o‘zining Likey maktabini tashkil etadi. Aleksandr vafotidan so‘ng dahriylikda ayblanib, Evbeya Xalqidasiga qochishga majbur bo‘ladi va umrining oxirigacha shu yerda yashaydi.

A. o‘zidan boy falsafiy meros qoldirgan: “Metafizika”, “Siyosat”, “Poetika”, “Ritorika”, “Ruh haqida”, “Kategoriyalar” va h.k. Ijodi o‘z zamonidagi, deyarli, barcha fanlarni qamrab oldi. U olamdagi hodisa va predmetlarni 4 guruhga bo‘ladi: 1) materiya; 2) shakl; 3) sabab; 4) maqsad. Uning ta’limotiga ko‘ra, Xudo – o‘z qonunlari bo‘yicha rivojlanayotgan barcha shakllar, tabiatdagi jamiki hodisalar va hamma mavjud narsalarning oliy maqsadi, olamni harakatga keltiruvchi ilk kuchdir.

U Sharqda ham mashhur bo‘lgan ustoz alloma sifatida – muallimi avval deb ulug‘langan. Forobiy uning “Metafizika”, “Ruh haqida”, “Etika”, “Kategoriyalar”, “Topika”, “Analitika” va boshqa asarlariga sharh yozib, olimning fikrlarini davom ettirgan va rivojlantirgan. Beruniy va Ibn Sino A. asarlari ustida bahs-u munozara olib borganlari ma’lum.

N. A.ni ko‘plab asarlarida tilga oladi. “S.I.”-ning esa u asosiy qahramonlaridan biri.

N. arab va fors manbalari orqali A.ning ijtimoiy-falsafiy qarashlari b-n tanish bo‘lgan. U “M.” asarida Fisog‘urs hakim zamonidan muallimi avval A.gacha, undan keyin Forobiy davrigacha bo‘lgan barcha ilmlarni egallaganini aytishi bejiz emas. N. davrida A.ning “Mantiq ilmiga kirish”, “Kategoriyalarga kirish” kabi asarlari qayta-qayta ko‘chirilgan va sharhlangan. N. va uning zamondoshlarining falsafiy, ijtimoiy, axloqiy qarashlarida A. ta’limotining ta’siri sezilib turadi. Ular A.ning musulmon Sharqidagi beqiyos nufuzidan foydalanib, yuksak insonparvarlik g‘oyalarini ilgari surganlar. N.ning A. tilidan bayon etgan fikr va qarashlari, hikmatomuz so‘zlari aslida shoirning o‘z o‘y-mushohadalaridir. Asarlaridagi A. obrazi esa tarixiy shaxs bo‘lmay, badiiy to‘qimadir.

Bo‘lub Yunonda hikmat virdi oning
Arastu bir kichik shogirdi oning.

N. “T.A.H.” asarida uni hukamo – hakimlar zumrasida zikr etib, Aflotunning shogirdi va Iskandarning vaziri deb yozadi va uning hikmatlaridan birini namuna sifatida keltiradi: “Shoh katta daryoga, tobelari undan ajralgan irmoqlarga o‘xshaydilar: daryo suvi qanday bo‘lsa, irmoqlarning suvi ham shunday bo‘ladi – u shirin bo‘lsa, bular ham shirin, u achchiq bo‘lsa, bular ham achchiq, u sof bo‘lsa, bular ham sof, u loy bo‘lsa, bular ham loy. Binobarin, shoh hikmat va adolat b-n ish yuritishi kerak, chunki tobelari ham unga ergashadilar”.

N.ning “S.I.” dostonida A. Naqumohisning farzandi, Iskandarning ustozi bo‘lgan donishmand sifatida tasvirlanadi.

Bori ilm aro, o‘yla sohibkamol –
Ki, komil aningdek topilmoq mahol.

Iskandar uning nasihatlariga quloq soladi, maslahatlari b-n ish yuritadi va dono hukmdor bo‘lib yetishadi. Doston davomida Iskandar turli masalalar yuzasidan savol beradi, A. unga javob qaytaradi. Iskandar oyinasini yasashda Buqrot va yuz nafar olimga rahbarlik qiladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик. 8 жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1-жилд. – Т., 2000; Алиқулов Ҳ. Арасту ва Навоий // “Алишер Навоийнинг ижодий мероси ва унинг жаҳон шумул аҳамияти” мавзуидаги илмий-назарий анжуман маърузалари тезислари. – Т., 2001.*

E.O.

ARSHAMIDUS – qadimgi yunon olimi Arximed (eramizgacha bo‘lgan 287-212-yy.)ning sharqona nomi. A. Sitsiliyaning Sirakuza shahrida tug‘ilgan. Sirakuza hukmdori Gieronning qarindoshi bo‘lgan. Dastlab Sirakuzaning o‘zi-

da o‘qigan. Keyinchalik o‘z bilimlarini oshirish u-n Misrning Aleksandriya shahriga borib, o‘sha yerda tahsil olgan. Bu vaqtda Aleksandriya dunyoning e’tirof etilgan ilm-fan markazi edi. Mashhur Aleksandriya kutubxonasida 700 mingdan ortiq qo‘lyozma asarlar bo‘lgan. Aleksandriyada u Konon, Eratosfen singari olimlar b-n tanishgan va keyinchalik, Aleksandriyadan ketganidan keyin ham ular b-n xat orqali aloqa qilib turgan. Tahsilni tugatganidan so‘ng u ona shahri Sirakuzaga qaytgan va umr bo‘yi shu yerda yashagan. A., asosan, matematika, geometriya, fizika, mexanika b-n shug‘ullangan va bir qator kashfiyotlar, ixtirolar qilgan. Uning eng mashhur kashfiyotlaridan biri Arximed qonuni hisoblanadi.

A. nomi N.ning “S.I.” dostonida tilga olinadi. Dostonda hikoya qilinishicha, Iskandarning besh yuzta hakimi bo‘lgan. Shulardan o‘ntasi doimo uning yonida turgan va A. ana shu o‘ntaning bittasi edi:

Bor edi janobida besh yuz hakim,
Alardin o‘ni kecha-kunduz nadim:

Filotun, Arastu, Balinos ham,
Yana Arashmidus, Shaminos ham.

Kilinmun-u Volis-u Farfurnus,
Ki, Suqrot-u Hurmus kibi pokbo‘s.

Shuningdek, u Arastu va Buqrotlar b-n birga ikki yuz hakim-donishmandga ilmiy rahbarlik qilib, “Mir’oti getinamo” – “Iskandar ko‘zgusi”-ni ixtiro etishda faol qatnashadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Житомирский С.В. Архимед. – Москва, 1981; История математики. – М., 1970.*

Q.E.

“ARBA’IN” – hadislar mazmunini she’rga solish asosida yozilgan asar. “Arba’in” so‘zi lug‘atda “qirqta” ma’nosini anglatadi. Istilohda esa, qirqta saylanma hadis mazmunini she’riy bayon etmoqdir. Sharq adabiyotida arba’inchilik o‘ziga xos an’ana tarzida rivojlangan. Movarounnahrda bu an’anani birinchi bo‘lib, al-Marvaziy boshlab bergan. Abdurahmon Jomiyning forsiyda bitilgan “Chihil hadis”i ancha shuhrat qozongan. N.ning 886 hijriy (milodiy 1486-y.) da yozilgan “Arba’in” asari “Chihil hadis” b-n bir davrda yaratilgan. Asarda arba’inchilik an’anasi yangilangan, yuqori bosqichga ko‘tarilgan. G‘iyosiddin Xondamir “Makorim ul-axloq”da bu asar nomini “Chihil ruboiy” deb zikr etadi. Asardagi hadislar mazmuni aslida qit’a janrida bitilgan.

“A.” u-n asosan sahih hadislar tanlangan bo‘lib, hazrat N. birorta ham mavzu – to‘qima hadisdan foydalanmagan. Buyuk mutafakkir buni asar muqaddimasida quyidagicha ta’kidlaydi:

O‘qug‘onda Buxoriy-u Muslim,
Qirq so‘z – borcha shubhadin solim.

“A.” matni basmaladan keyin muqaddima, qirq hadisning asliyatdagi matni, turkiy tildagi nazmiy sharhi hamda xotimadan tarkib topgan. Muqaddima yaxshilikka olib boruvchi Kalomni Rasuli (s.a.v.) orqali yuborgan Zotga hamd b-n boshlanadi:

Hamd angakim, kalomi xayrmaol
Qildi elga rasulidin irsol.

Hamddan so‘ng har bir so‘zi fasohatli bo‘lgan, sahih hadislari orqali odamlarni jaholatdan xalos, ilm xilvatgohiga xos etish, ularning do‘zaxdan najot va jannat ichra hayot topishlarini maqsad qilgan Rasululloh (s.a.v.) vasf etiladi. Asarning na’t qismi hajman katta bo‘lmasa ham (4 bayt), mohiyatan teran, badiiyati yuksak. Hazrat N. shundan so‘ng nazmiy devoni-yu nasriy asarlari b-n shuhrat qozongan ustozi Abdurahmon Jomiyning shubhadan xoli bo‘lgan qirq hadisni forsiy tilda she’rga solgani, forsiydonlar undan ko‘p foydalangan bir paytda bu nafdan be-

bahra qolgan atrok – turkiylar u-n mazkur asarni yozgani xususida so‘z yuritadi. Asarni o‘qiganlar mazkur hadislarga amal qilishi, shu orqali hadislarni so‘zlagan zotning shafoatiga muyassar bo‘lishidan umid izhor etadi.

“A.” xafifi musaddasi maxbuni mahzuf (foilotun mafoilun failun) vaznida yozilgan. Teran ma’rifiy mazmun va go‘zal badiiy shakl uyg‘unligi – asar umrboqiyligini ta’minlab kelayotgan ikki asos ana shulardir. A.dagi qit’alarni mavzuga ko‘ra quyidagicha tasnif etish mumkin: 1) yaxshilikka da’vat etuvchi hadislarning nazmiy sharhi; 2) yomonlikdan qaytaruvchi hadislarning badiiy talqini. Birinchi guruhga oid she’rlarda komil axloq, do‘stlik, qarindoshlik rishtalari, saxovat, va’daga vafo, hammani teng ko‘rish, ogohlik, Alloh taoloni zikr etish va Unga shukr aytish, rahmdillik, poklik, qanoat, boshqalardan ibrat olish, elga naf keltirish, xushmuomalalik va ochiq yuzlilik, yaxshilarni ziyorat qilish, o‘zgalarning emas, o‘z aybini ko‘rish, behuda narsalarni tark etish, g‘azab chog‘ida nafsni jilovlay bilish, ilmga rag‘bat, onaga munosib darajada ehtirom ko‘rsatish, qo‘shnichilik odoblari singari fazilatlarga oid hadislar nazmiy usulda sharhlangan. Ikkinchi guruhga doir she’rlarda esa badxulqlik, g‘aflat, omonatga xiyonat, baxillik, minnat, eshitgan har bir so‘zini odamlar ichiga yoyish, ko‘p kulish, ortiqcha so‘zlash singari mo‘minga xos bo‘lmagan xislatlarni qoralovchi hadislar ma’nolari betakror badiiy talqin etilgan.

Asar quyidagi hadisning nazmiy sharhi b-n boshlanadi: “Orangizdan hech bir kimsa o‘zi sevgan narsani o‘zgalarga ham ravo ko‘rmagunicha, iymoni mukammal bo‘lmaydi”. Ushbu hadis mazmunini ulug‘ shoir quyidagicha poetik ifodalaydi:

Mo‘min ermasdur, ulki iymondin,
Ro‘zgorida yuz safo ko‘rgay.
Toki qardoshig‘a ravo ko‘rmas –
Nekim o‘z nafsig‘a ravo ko‘rgay.

Muborak hadislar arab tilida vorid bo‘lgani ayon. Hadislar mazmuni badiiy talqin etilgan aksar asarlarda shu bois arab tilining ta’siri kuchliroq bo‘ladi, milliy ruh ifodasi kuzatilmaydi. Ulardan farqli o‘laroq hazrat N. muayyan hadis sharhida millatning ruhiyatini o‘zida aks ettirgan, uning asl tabiatiga xos fazilatlarni ifodalovchi tashbehlar-u istioralarni mahorat b-n qo‘llaydi. Bu orqali she’rning ta’sir kuchini oshirishga, hadis mazmunini o‘quvchi shuuriga chuqurroq joylashga muvaffaq bo‘ladi.

O‘zbek xalqining umumjahon ma’naviyati rivojiga munosib hissa qo‘shgani isbot talab qilmaydi. Xalqimizning dunyoqarashiga benihoya uyg‘un hadisi shariflar bu ma’naviyatning yangi yuksalish bosqichiga ko‘tarilishida alohida o‘rin tutgani ham sir emas. Jumladan, xudbinlik, ya’ni faqat o‘zini o‘ylash o‘zbekning tabiatiga yot tushuncha. Bizning xalqimizda jamoaning – mahalla-ko‘y, qo‘ni-qo‘shnilarning fikri b-n so‘zsiz hisoblashiladi. Urf-udumlarda ana shu holat har doim e’tibor markazida turadi. Shu jihatdan, “Odamlarning yaxshisi – elga manfaati yetadiganidir” mazmunidagi hadis milliy qadriyatlarimizga har jihatdan uyg‘un ekanini ta’kidlash kerak. N. ana shu muborak hadisni mana bu tarzda nazmiy talqin etadi:

Xalq aro yaxshiroq deding kimdur,
Eshitib ayla shubha raf’ andin.
Yaxshiroq bil ani ulus arokim,
Ulusqa etsa ko‘proq naf’ andin.

Milliy mentalitetimizga xos yana bir xususiyat – ota-onani yuksak darajada qadrlamoq, ularning hurmatini joyiga qo‘ymoq b-n belgilanadi. Ajdodlarimizga xos fazilatlardan biri ota-ona o‘tirgan uyning tomiga chiqmaslikdir. Bizda ota-onadan avval dasturxonga qo‘l uzatilmaydi, ulardan tepaga chiqib o‘tirilmaydi. Ular biror ish buyursalar, muhokama qilinmaydi, zudlik b-n bajariladi. Ota-onaning oldida qo‘lni ko‘ksiga qo‘yib turish – fazilat. Ular oldida baland ovozda so‘zlamaslik, odob saqlash – qadriyat. Shuning u-n “Jannat onalarning oyog‘i ostidadir” mazmunidagi hadis o‘zbekning tabiatini, o‘zaro munosabatlardagi xulqini to‘laqonli ifodalagan. A.da

bu hadisni buyuk mutafakkir she’riy usulda betakror badiiyat b-n ta’sirchan ifodalagani sababi shundadir:

Onalarning oyog‘i ostidadur,
Ravzayi jannat-u jinon bog‘i.
Ravza bog‘i visolin istar esang,
Bo‘l onaning oyog‘i tufrog‘i.

Muhim bir jihat, buyuk mutafakkir hadis mazmunini dastlabki ikki misradayoq ifoda etib bo‘lgan edi. Keyingi satrlarni hadisning she’riy sharhi, deyish mumkin. Bu sharh hadisi sharif mazmunini o‘quvchi qalbiga shundoq joylab qo‘ya qolgan. Bunday o‘ziga xos yondashuv, san’atkorona ifoda, poetik mukammallik faqat N. ijodiga xos.

Buyuk mutafakkir hadis mazmunini shunchaki qofiyali so‘zlar orqali bayon etish maqsadini qo‘ymaydi. Ifodaning ta’sirchan, badiiy go‘zal bo‘lishiga e’tibor qaratadi. “Xislatani lo yajtami’ani fiy mo‘minin: al-buxlu va su’ ul-xulqi” hadisining mazmuni quyidagicha: “Mo‘minda ikki xislat – yomon xulq va baxillik jam bo‘lmaydi”. Bu mazmundagi hadis muallif nazmiy talqinida quyidagi shaklda namoyon bo‘ladi:

Mo‘min ersang qilib durringni nisor,
El bila ravshan o‘l nechukkim sham’.

Negakim, Tengri hech mo‘minda,
Buxl-u badxo‘yluqni qilmadi jam’.

Adabiy, tarixiy va ilmiy-ma’rifiy manbalarda jamiyat chinakamiga rivojlanishi, odamlar o‘rtasidagi munosabatlar o‘zaro siylai rahm asosiga qurilishi u-n boylarda saxovat, faqirlarda qanoat, siyosatda adolat bo‘lmog‘i zarurligi aytiladi. “Al-qano’atu molun la yanfad” – “Qanoat bitmas-tuganmas moldir”, mazmunidagi hadis ham ayni shu haqda.

Hirsdin kechgil ul g‘amedurkim,
Haddu g‘oyat emas anga paydo.
Tut qanoatki, ul erur mole –
Ki, nihoyat emas anga paydo.

Aslida, hadisi sharif matnida hirs haqida biror so‘z deyilmagan. Biroq hazrat shoir ijodiy niyati so‘z ta’sirini kuchaytirish, she’rning yuksak badiiyatini ta’minlash edi. To‘rtlikdagi *“Hirsdin kechgil ul g‘amedurkim, Haddu g‘oyat emas anga paydo”* misralari ana shu maqsadda ijod qilingan. Mazkur satrlarda hirs va qanoat tushunchalari hosil qilgan tazod vositasida yuqoridagi muborak hadis mazmuni o‘quvchi qalbiga chuqur joylashishiga erishilgan.

A. asarini, ta’bir joiz bo‘lsa, yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlar jamlangan badiiy xazina, deyish mumkin. Teran ma’rifiy mazmun va go‘zal poetik shakl uyg‘unligi, yuksak fasohat va balog‘atni tajassum etgani asar ilm-u fazl ahli nazdida ham, oddiy she’r muhiblari nazarida ham birday maqbul ekanining asosiy omilidir.

Ad.: *Алишер Навоий. Арбаъин. ТАТ. 10 жилдлик. 10 жилд. – Т., 2011; Арбаъин (тахрижи, насрий баёни, қисқача изоҳи билан) Алишер Навоий. “Навоийдин чу топқайлар навое” (Нашрга тайёрловчилар, таржима ва изоҳ муаллифлари Ҳасанхон Яҳё Абдулмажид, Ҳусайнхон Яҳё Абдулмажид). – Т., 2014.; Рустамий Алибек. Шарҳ ва изоҳлар. – Алишер Навоий. Арбаъин. – Т., 1991; Хондамир Ғиёсиддин. Макорим ул-ахлоқ. – Т., 2018; Юсупова Д. Ўзбек муттоз адабиёти тарихи (Алишер Навоий даври). – Т., 2013; Сирожиддинов Ш., Юсупова Д., Давлатов О. Навоийшунослик. – Т., 2018.*

E.O., M.A., S.R.

ARBA’IN (ar.) – 1. Son nomi – qirq. 2. Majoziy: so‘fiylar xilvatga chekinib, yolg‘iz riyozat chekadigan va ibodat qiladigan 40 kunlik muddat. chilla. Odatda chillaga murshidning ruxsati b-n o‘tiriladi. N. “N.M.”da Shayx Nizomiyning 40 marta chilla o‘tirgani haqida ma’lumot beradi: “*Mashhur mundoqdurki, alar suluk ayyomida qirq arba’in chiqaribdurlar va to‘rt arba’inni bir*

daraxt ustida chiqaribdurlar. Har oyina bu nav' mufrit riyozatlar tortmag'uncha bu nav' besh ganjki, alarg'a nasib bo'lubdurki, ko'p ab'yoti alfoz jazolatidin va ma'no-yu tarkib salosatidin desa bo'lurki, e'joz sarhadiga etibdur, kishining ilkiga kirmak imkon emas..."

Tazkirada boshqa shayx-u valiylarning A.lari haqida ham ma'lumot keltiriladi. M-n: Xoja Yusuf Shayx Abu Is'hoq Shomiy doim ziyorat qiladigan Xoja Hojiyi Makkiy mozori yonida o'z qo'li b-n chillaxona qurib, 12 yil o'sha yerda yashagan.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик. 10 жилд. – Т., 2011; Фарҳанги забони тожики. Жилд 1. – М., 1969; Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. – Душанбе, 1987.*

E.O.

ARBOBI TARIQAT – haqiqat yo'lining soliklari. Tariqat sayrning ibtidosi-yu haqiqat uning nihoyasi deydilar. Jumladan, N. "N.M." tazkirasida Shayx Shahobiddin Suhravardiy zikrida shunday yozadi: "O'z vaqtlarida shayx ushshuyux ermishlar. Bag'dodda tariqat arbobi yiroq-yaqindan bu qavm masoyili istifosini alardin qilur erdilar".

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик. 10-жилд. – Т., 2011; Фарҳанги забони тожики. Жилд 1. – М., 1969; Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. – Душанбе, 1987.*

E.O.

ARDASHER I – Sayyid Hasan Ardasherning otasi (Q.: "**Sayyid Hasan Ardasher**").

ARDASHER II – "S.I." dostonida xiroj to'lashdan bosh tortgan, Iskandarga qarshi kurashga hozirlik ko'rib, o'ziga qaram el-u yurtlardan qo'shin to'plagan Doro askarlari safiga Madoyin mamlakatidan yuz ming jasur askarni boshlab kelgan sarkarda:

Madoyin navohisidin Ardasher,
Chekib tig', xaylida yuz ming daler.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

M.A.

ARDASHER BOBAK (taxminan 180-241) – qadimgi Erondagi Sosoniylar sulolasi asoschisi va birinchi podshohi. Bahmanning taqvodor o'g'li Sosonning nabirasi. Otasining oti ham Soson edi.Ashkoniylardan Arduvonning Fors viloyatidagi noibi Bobak qo'lida tarbiya topgan. Ardasher Soson va Bobakning qizi o'rtasidagi nikohdan tug'ilgan va shu sababli A.B. deb atalgan. N. "T.M.A." asarida A.B. haqida keng va atroflicha ma'lumot berarkan, uni sosoniylarning birinchisi ekanini ta'kidlagan: "Har taqdir bila Ardasher Bobak Sosoniylarning avvalg'i podshohidur". Asarda A.B.ning yoshligi, Arduvon saroyida xizmat qilishi, hokimiyat u-n kurash boshlagani batafsil bayon etilgan va ularning barchasi tarixiy asosga ega. Ilm va qudratda nom qozongan A.B. ni Arduvon tilatib oladi hamda rashk va hasaddan "bir navkar o'g'li anga saltanat oyinining shitobi ne munosibdur deb o'z miroxo'rlig'ini buyurdi". Bu orada Bobak vafot etadi. A.B. uning o'rniga o'zini tayinlashini umid qiladi, lekin Arduvon bu lavozimga o'z o'g'lini tayinlaydi. Bundan norozi bo'lgan A.B. Istaxrga qochib boradi va bu yerda ko'plab tarafdorlar orttiradi. Bu hol uning siyosiy kurashdagi g'alabasini ta'minlaydi. Avvalo, Arduvonning o'g'lini oradan ko'taradi. 224-y. da unga qarshi qo'shin tortgan Ashkoniylar sulolasining so'nggi vakili Arduvon ham yengilib, qatl etiladi. 226-y.da A.B. shahanshoh deb e'lon qilingan. Shu tariqa mulk ashkoniylardan sosoniylarga o'tadi. Bu o'rinda shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, N. ushbu tarixiy voqealar haqida xabar berar ekan, ularni birmuncha badiiylashtiradi. Shu sababli asarning mazkur qismi katta qiziqish b-n o'qiladi. Muallif A.B. tomonidan barpo etilgan shaharlar haqida ham ma'lumot berib, uning zikrini ushbu misralar b-n yakunlaydi:

Jahon mulkin oldi chun Ardasher,
Tavono-u dono shah erdi daler.

O‘larda ne naf’ etdi donolig‘i,
Ne naf’ aylay oldi tavonolig‘i.

A.B.ni N. “S.I.” dostonida ham tilga oladi. Unga bag‘ishlagan birgina baytda muallif yana bir ma’lumotni qo‘shimcha qilgan, ya’ni ayrimlar A.B.ni valiy deb hisoblagani haqida yozgan:

Biri Ardasher ibni Bobak erdi,
Ki, ba’zi el oni valiy ham dedi.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

Q.E.

ARDASHER BINNI SHERUYA – Sosoniylardan. N.ning yozishicha, Sheruya otasi Xusrav Parvizni o‘ldirgandan so‘ng kasallikka chalinib, olamdan o‘tadi. U taxtga da’vogarlik qilmasliklari u-n o‘zining aka-ukalarini ham o‘ldirgan edi. Shu sababli a’yonlar noilojlikdan Sheruyaning yetti yashar o‘g‘li A.B.Sh.ni taxtga o‘tqazadilar. U balog‘atga yetguncha davlatni boshqarib turishni Xusravning saroyida xonsolar bo‘lib xizmat qilgan Mehrijis zimmasiga qo‘yib, uni vazirlik mansabiga ko‘taradilar. Xusrav Parviz zamonida katta mavqega ega bo‘lgan Shahrirod degan kishi bosh ko‘tarib, qo‘shin tortib keladi va A.B.Sh.ni ham, Mehrijisni ham o‘ldirib, taxtni egallaydi. N. A.B.Sh.ning hukmronlik muddatini bir yil-u olti oy deb ko‘rsatgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; История Ирана с древнейших времен до конца XVIII века. – Изд-во Ленинградского университета, 1958; Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. – Душанбе, 1987; История стран Азии и Африка в средние века. Жилд 1. – М., 1987.*

Q.E.

ARDASHER BINNI HURMUZ – sosoniy hukmdor Shopur Zulaktofning inisi. Shopur Zulaktof taxtni A.B.H.ga o‘z o‘g‘li ulg‘ayganidan so‘ng qaytarib berish sharti b-n vasiyat qilib qoldiradi. “T.M.A.”da N. A.B.H. shaxsiyati va hukmronligi haqida ziddiyatli fikrlar mavjudligini aytadi. Unga ko‘ra, “Tarixi Guzida”da A.B.H. “bag‘oyat xiradmand va dono kishi” deya ta’rif etilsa, Banokatiyning asarida benihoya zolim va jobir, deb keltiriladi. A.B.H. hukmronligi o‘n yil davom etgan.

“S.I.” dostonining to‘rtinchi tabaqa sosoniy hukmdorlar ta’rifiga bag‘ishlangan bobida A.B.H. nomi ham eslab o‘tiladi:

Yana Ardasher ibni Hurmuzg‘a kavn,
Yetishti chu ul Tengridin topti avn.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

E.O.

ARDUVON (Artoban V) – Ashkoniylar sulolasining so‘nggi vakili. 209-224-yy. taxtda o‘tirgan. Hukmdorlik davrida uning qilgan yaxshi ishi Rim b-n uzoq vaqtdan beri davom etib kelgan nizolarga barham bergani va sulh tuzganidir (218 y).

Oradan birmuncha vaqt o‘tgandan so‘ng Ardasher Bobak unga qarshi isyon ko‘targan. Ikki o‘rtada 224-y.da bo‘lib o‘tgan jangda Arduvon mag‘lubiyatga uchragan va halok bo‘lgan. Uning o‘g‘li ham taxtni saqlab qololmagan va hokimiyat Sosoniylar sulolasi qo‘liga o‘tgan (226-y.). N. “T.M.A.”da Ashkoniylar sulolasiga bag‘ishlangan qismida A.ga ham to‘xtalib o‘tgan. N. uni Arduvon binni Yalosh deb ataydi. Lekin hozirgi zamon tadqiqotchilarning ko‘rsatishicha, A.Yaloshning (Yevropa tarixshunosligida bu nom

Vologes tarzida keltiriladi) o‘g‘li emas. “T.M-.A.”ning Sosoniylarga va Ardasher Bobakka bag‘ishlangan qismida ham A. va uning Ardasher b-n munosabatlari, ikki o‘rtadagi kurash haqida ma’lumotlar bor. N.ning yozishicha, Bobak vafot etgandan so‘ng A. uning o‘rniga Ardasherni emas, o‘z o‘g‘lini tayinlagan. Ardasher bundan norozi bo‘lgan va A. huzuridan qochib ketgan. Bunda unga bir kanizak yordam bergan. Ular birga Istaxr shahriga kelganlar. Bu yerda otasiga qarashli kishilar bor edi. Ularni yig‘ib, A.ning o‘g‘liga qarshi chiqqan. Bu xabar A.ga yetgach, u qo‘shin to‘plagan va Ardasher b-n urushgan. Ardasher g‘olib chiqib, A.ning taxtini egallagan.

A. nomi N.ning “S.I.” dostonida ham tilga olingan.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Грантовский Э.А. и др. История Ирана. – М., 1972.*

Q.E.

ARLOT (arlat, allot) – 92 o‘zbek urug‘laridan biri. Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarayi turk” asarida yozilishicha, A.ning ma’nosi: “Aning ma’nosi otaning sevar o‘g‘li temak bo‘lur. Arlat bir kishining oti turur. Ani otasi ko‘p sevar erdi. Aning uchun Arlat tedilar. Barcha Arlat eli aning nasli tururlar”. Manbalarga ko‘ra, Chingizxon tomonidan Chig‘atoy ulusining harbiy himoyasi u-n ajratilgan 4 ming kishilik qo‘shin boshliqlaridan biri ham A. urug‘idan (qolgani *jaloyir, barlos, qavchin*) bo‘lgan. A.lar Amudaryodan janubda, Shimoliy Afg‘oniston hududiga o‘rnashganlar. Keyingi asrlarda hozirgi O‘zbekistonning janubiy viloyatlari, shuningdek, Xorazmga ko‘chib o‘tganlar. Bu nom hozirgi vaqtda etnonim va ba’zan toponim sifatida Samarqand, Buxoro, Xorazm, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida ko‘proq uchraydi.

N.ning lirik va epik asarlarida qator o‘rinlarda A. etnik urug‘ nomini tashigan. Jumladan, N. “X.M.” to‘plamidan o‘rin olgan devonlarida mahbubaning sho‘x-shaddodligi, o‘xshashi yo‘q dilbarligini A., barlos, tarxon, sulduz urug‘larini tilga olish b-n yanada yorqinroq, ta’sirchanroq tasvirlashga erishgan. Bunda A. yoki boshqa nomlar mazkur urug‘ vakillariga xos xislat va fazilatlarni alohida ta’kidlashga xizmat qilgan bo‘lsa, boshqa tomondan, Chig‘atoy ulusiga rahbarlik u-n yuborilgan to‘rt qo‘shin boshliqlarining misralarda ketma-ket qalamga olinishi yuqorida aytib o‘tilgan tarixiy ma’lumotni tasdiqlaydi.

Sanamlar husnidin maqsud yor
o‘lmish Navoiyg‘a,
Agar barlos, agar tarxon, agar arlot,
agar sulduz.

Yoki mana bu misralarda yana bir boshqa manzara diqqatni tortadi:

Ey Navoiy, meni zor ayladi bir lo‘livash,
Kim, ham arlot unut bo‘ldi manga, ham bilgut.

Baytlar mazmunidan anglanishiga ko‘ra, garchi lirik qahramon ishqi tushgan lo‘livash – sho‘x ma’shuqaning qaysi urug‘dan bo‘lishi unchalik e’tiborga molik emasdek ko‘rinsa-da, A. va boshqa urug‘ nomlarining qayta-qayta eslanishi bu qavmlarga mansub yigit va qizlarning g‘oyatda latofatli, diltortar, jasur bo‘lganliklarini ko‘rsatib turibdi.

“V.” asaridan olingan quyidagi parcha ham fikrimizni quvvatlaydi: *“... Chun zamonning azim ush-shon sodot va fuzalosi va davronning karim ul- xulq quzot va ulamosi va temuriynajod shahzodalar va “barlosiy” nihod ozodalar va “arlotiy” ismlik sadrnishinlar va “tarxoniy” rasmlik ayshguzinlar va “qiyot” nasablik mutaayyinlar va “qo‘ng‘irot” hasablik mutamakkinlar va “uyg‘uriy” sifot baxshilar va “uyg‘ur”chargalik yaxshilar va “cho‘li”lik biyobonida jonsiporli qilg‘on jondorlar va boyrilik ayyomida xizmatkorlik qilg‘on jonsiporlar va “jaloyir” g‘avg‘osi va qavchin” alolasi mavjud erdi va har mavjudqa bir maqsud va podshohona inoyat va har qaysig‘a bir munosib mansab bilan sarbaland*

va xusravona tarbiyat, har birisini muvofiq amal shug‘lig‘a payvand qildilar”. N.ning yozishicha, Sulton Husayn Boyqaro taxtga chiqqach, turli mansab va lavozimga tayinlovlar amalga oshirgan, “azimushshon fuzalo, qozi, olim, shahzoda va turli kiborlar orasida “Arlotiy” ismlik, ya’ni A. urug‘iga mansub sadrnishinlar – sardor yoki boshliqlar ham borligini alohida qayd qiladi.

Shuningdek, N. o‘zining “N.M.” tazkirasida Hoji Shayx (a.r.)ga bag‘ishlangan fiqrada uning Yusuf atoning o‘g‘li ekanini, o‘z ishida otasidan ham ziyoda mohir bo‘lgani, zamonasining ulug‘ insonlari o‘zlarini Hoji Shayxga murid-u suhbatdosh sanashlarini, shu b-n birga, A. ulusi va Tarxon elining ulug‘-u kichigi unga chin ixlos b-n iqtido qilishlari haqida xabar beradi. Manbalardan ma’lum bo‘lishicha, Temuriylar davlati vujudga kelishi arafasida *qarluq, chig‘il, o‘g‘uz, yog‘mo, qipchoq, barlos, qovchin, A., jaloyir* kabi turkiy qabilalarning mavqeyi oshib borgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Наводир уш-шбоб. ТАТ. 10 жилдлик, 2-жилд.– Т., 2011; Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик, 3-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд.– Т., 2011; Алишер Навоий. Вақфия. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд.– Т., 2011; Абулғозий Баҳодирхон. Шажарайи турк. – Т., 1992; Заки Валидий Тўғон. Ўзбек уруғлари. – Т., 1992.*

S.O‘.

ARRON – “S.I.” dostonida Iskandar o‘ziga bo‘ysunishdan bosh tortgan Kashmir shohi Mallu, Hind royi va Chin xoqoniga qarshi yurishidan oldin “Cherik shohlar qish kuni chekmamish” deb Qarobog‘i Arronda qishlaydi:

Chu qishloq ishi ko‘nglida erdi jazm,
Qarobog‘i Arron sari qildi azm.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

M.A.

ARTUR Lumley Devids (Arthur Lumley Davids; 1811–1832. Angliya) **–** ingliz sharqshunosi, huquqshunos, tilshunos olim. Yevropa tillarini, fors, arab, turk tilini o‘zlashtirgan. Atigi 21 yil yashagan Devids turkiy tilni chuqur o‘rganib, o‘zining mashhur “Turk tili grammatikasi” (Grammar of the Turkish Language, with a Preliminary Discourse on the Language and Literature, of Eastern Nations, 1832) kitobini yaratadi. Kitobning qimmatli jihati shundaki, unda turkiy xalqlarning kelib chiqish tarixi, O‘g‘uzxon afsonasi, uyg‘ur alifbosi, turkiy so‘zlarning turk, ingliz, fors tilidagi lug‘ati, turkiy tilli adiblarning tarjimayi holi, asarlaridan parcha eski o‘zbek yozuvida va ingliz tilidagi tarjimasi b-n berilgan. Kitobda N.ga aloqador qismlar uch o‘rinda keladi. 1. Mir Alisher qismida. 2. Bobur ta’rifida. 3. Asar matnlaridan parcha va tarjimasi o‘rnida.

Mir Alisher qismida N.ning tug‘ilgan yilini 1470-y. deb yanglish ko‘rsatadi. Mir Alisher turkiy adabiyotga hissa qo‘shgan adiblarning eng yirigidir, taxallusi Navoiy (Nuvai), Xurosonda hukmronlik qilgan Sulton Husayn mirzoga vazir edi, ko‘plab ajoyib she’riy va nasriy asarlari b-n shuhrat qozondi, deya qayd etadi. Bobur ta’rifida “Voqeoti Boburiy”, deb boshlanib, asar qo‘lyozmasi Jon Leyden qo‘lida saqlanishini aytadi. Asardan olingan Boburning tarjimayi holini, mashaqqatlarini hamda asar qismlarini bir-bir qayd etadi. “Boburnoma”dan, asosan, Xurosonda Husayn Boyqaroning saroyi va N.ning faoliyati, asarlari, homiyligida yetishib chiqqan madaniyat va san’at vakillari haqidagi qism olingan. Qariyb uch betda “Boburnoma”dagi N. ta’rifi berilgan. Olim ma’lumotlarni berishda Jon Leyden va Uilyam Erskin tarjimasini ham qayd etadi. Abulg‘ozining “Shajarayi turk” asari ta’rifida ham N. asarlarini tarjima qilish zarurligi, bu ishni akad.lar o‘z zimmasiga olishi lozimligi, izohda esa Mark Etenn Katrmer bu ishni rejalashtirganini aytadi. Turkiy tildagi asarlardan parchalar berilgan qismida esa boshqa adiblarga nisbatan N.dan juda kam parcha berilgan. “M.N.”dagi Mirzo Ulug‘bek ta’rifi arab alifbosi va inglizcha tarjimasi b-n beriladi. Mazkur kitob A.Devidsning onasi Sara Devids tomonidan

fransuz tiliga tarjima qilinib, nashr etilgan (1836). Umuman, Devidsning yosh bo‘lishiga qaramay to‘plagan ma’lumotlari, bilimi asosida shakllangan mazkur kitob ilmiy jihatdan katta ahamiyatga ega bo‘lib, Angliyadagi turkiyshunoslikni o‘rganishga asos bo‘la oladi.

Ad.: *Davids Arthur Lumley. A Grammar of the Turkish language:: with a preliminary discourse on the language and literature of the Turkish nations, a copious vocabulary, dialogues, a collection of extracts in prose and verse, and lithographed specimens of various ancient and modern manuscripts. – London: Parbury & Allen, 1832.*

O.T.

ARUZ (ar.) 1. Arz qilish, bayon etish; 2. Chodirni tutib turish u-n o‘rtaga qo‘yiladigan yog‘och) – 1. Yaqin va O‘rta Sharq xalqlari she’riyatidagi asosiy vazn turi; she’riy tizim; she’r o‘lchovi; she’r vazni. 2. She’r vazni va qoidalari haqidagi ilm; ilmi aruz. 3. Baytdagi birinchi misraning oxirgi rukni. She’rning vazni va bahri shu asosda aniqlanadi.

A. – qisqa va cho‘ziq hijolarning she’r misralarida ma’lum tartibda guruhlanib takrorlanib kelishiga asoslanadi. Bunda barmoq vaznidagi kabi hijolarning faqat miqdori emas, balki sifati ham muhim. A. vaznida undosh tovushlar b-n tugagan hijolar *cho‘ziq*, unlilar b-n tugagan hijolar (“o” dan tashqari) *qisqa* sanaladi. Ba’zida cho‘ziq hijo qisqa, qisqa hijo esa cho‘ziq o‘qilishi ham mumkin. Bu hodisa *imola* deyiladi.

VIII asrdan arab she’riyatiga tatbiq qilingan A.ning asoschisi Xalil ibn Ahmad bo‘lib, ushbu she’riy o‘lchovning nomi u yashagan joy yaqinidagi vodiy b-n bog‘liq. Bu haqda N. “M.A.” risolasida shunday yozadi: “oning yaqinida bir vodiy ermishki, oni “Aruz” derlar ermish va ul vodiyda a’rob uylarin tikib, jilva berib, bahog‘a kiyururlar ermish. Va uyni arab “bayt” der. Chun baytlarni bu fan bila mezon qilib, mavzunini nomavzundin oyururlar, go‘yoki qiymat va bahosi ma’lum bo‘lur, bu munosabat bila “aruz” debturlar”.

A. IX asr boshlaridan fors-tojik adabiyotida ham qo‘llanib, Rudakiy, Firdavsiy, Sanoiy, Nizomiy, Sa’diy, Attor, Rumiy, Hofiz, Jomiy bu vaznning barcha imkoniyatlaridan foydalanibgina qolmay, uning qo‘llanish doirasini kengaytirdilar va rivojlantirdilar. M-n, Rudakiy A.ni xalq orasida keng tarqalgan qo‘shiqlarga tatbiq qilish natijasida 10 ga yaqin yangi vaznlar ixtiro qilgan.

Qadim turkiy she’riyatda qisqa-cho‘ziq hijolarining muayyan mutanosiblikda takrorlanishiga asoslangan o‘lchov tizimi islomgacha ham qo‘llangan. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida shartli ravishda qadimgi turkiy aruz deb atalgan o‘lchovda yaratilgan qo‘shiqlar va she’rlarga duch kelamiz. Lekin turkiy she’riyatga A. IX–X asrlarda o‘sha davr an’analariga muvofiq ravishda turkiy xalqlardan yetishib chiqqan shoirlarning arab tilidagi she’rlari orqali keng kirib keldi. XI asrda yashab o‘tgan taniqli adabiyotshunos Abu Mansur as-Saolibiyning “Yatimat ud-dahr” tazkirasida movarounnahrlik ko‘plab arabiynavis shoirlar haqida ma’lumot berilgan. Ayni paytda, A.ning birmuncha yengil va o‘ynoqi vaznlarida turkiyda ham she’rlar yozilgan. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Adib Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asarlari, Oltin O‘rda shoirlari she’rlari, Xorazmiy, Sayfi Saroyi, Nosiriddin Rabg‘uziylar ijodi orqali esa turkiy she’riyatning ham asosiy o‘lchoviga aylandi. Bu davr turkiy she’riyatida A.ning 30 dan ziyod vaznlari qo‘llangan. Atoiy, Sakkokiy, Gadoiy, Lutfiylar ijodi A.ning mavqeyini yanada mustahkamladi.

N. esa o‘z ijodida A.ning 100 ga yaqin vaznlarini qo‘llash b-n bu she’riy tizimning barcha imkoniyatlaridan foydalanib, turkiy aruzni o‘z taraqqiyotining eng yuksak cho‘qqisiga olib chiqdi. U turkiy A.ni o‘zining rang-barang janrlardagi boy ijodi b-n amaliy jihatdan rivojlantiribgina qolmay, A. nazariyasiga bag‘ishlangan “M.A.” (q. “Mezon ul-avzon”) asari b-n uning ilmiy asoslarini ham ishlab chiqdi. N.dan keyin Bobur, Mashrab, Nodira, Munis, Ogahiy, Muqimiy, Furqat, Hamza kabi shoirlar aruziy an’analarni davom ettirdilar va takomillashtirdilar. Shu tariqa X asrdan XX asr boshigacha A. o‘zbek

she’riyatining ham asosiy o‘lchovi bo‘lib keldi. Keyinchalik barmoq vazni yetakchilik qilgan bo‘lsa ham A.da she’r yozish va tarjima qilish o‘zbek adabiyotida hozirgacha davom etib kelyapti. Tabiiyki, forsiy va turkiy adabiyotlar A.ni mexanik tarzda o‘zlashtirmay, balki u forsiy va turkiy tillarning o‘ziga xos xususiyatlariga imkon qadar moslashtirilgan. Bu hol esa A.ni boyitgan, arab A.i, forsiy A., turkiy A. kabi tushunchalarning yuzaga kelishiga asos bo‘lgan.

Yozma adabiyotni egallagan A. sekin-asta xalq og‘zaki ijodiga ham kirib bordi. Bu hodisa N.gacha ham keng tus olganini “M.A.”da keltirilgan tuyuq, qo‘shiq, chinga, muhabbatnoma, mustazod, aruzvoriy, turkiy kabi xalq orasida mashhur aruzda yaratiladigan janrlar misolida ko‘rishimiz mumkin. Bobur yana o‘lang, tarxoniy kabi xalqona aruziy janrlar haqida ma’lumot beradi. Fitrat ham A.ning ba’zi qulay vaznlari xalq ashulalari va manzumalari tarkibiga kirgani, barmoqdagi she’rlarda ham A. ohanglari mavjudligini aytadi.

A.da misraning tuproqqa o‘xshagan ritmik bo‘laklari rukn (ustun) bo‘lib, hijolarning cho‘ziq yoki qisqaligiga qarab, 8 aslga bo‘linadi va har biri arabcha “fayla” (harakat) so‘zidan yasalgan maxsus nom b-n ataladi: 1) faulun, 2) foilun, 3) mafoiylun, 4) foilotun, 5) mustaf’ilun, 6) maf’u(v)lotu, 7) mafoilatun, 8) mutafoilun. Bu usullar turli ritmik bo‘laklar (zihoflar)ni vujudga keltiradi va shu tarzda vazn ruknlari ko‘payib boradi. Rukn bir, ikki, uch, to‘rt va undan ortiq hijoli bo‘lishi mumkin. Ruknlar takroridan bahrlar (bahr arab tilida dengiz, she’r dengizdan olingan durga o‘xshatilgani u-n shunday nomlangan) paydo bo‘lib, A.da hazaj, ramal, razaj, mutaqorib, sare’ kabi 21 ta bahr mavjud. N. “M.A.”da ulardan 19 tasini keltiradi.

Aruz tizimi asoschisi Xalil ibn Ahmad bahrlarning o‘zlashtirilishini osonlashtirish maqsadida ruknlar, ulardagi sokin va mutaharrik harflar (yoki qisqa va cho‘ziq hijolar) sonining tengligiga ko‘ra o‘zaro yaqin bo‘lgan bahrlarni guruhlashtirib, ularning ritm-ohang xususiyatlarini, o‘zaro yaqinligi va farqlarini doira ichida keltirilgan bir misra she’r misolida ko‘rsatishni ma’qul ko‘rdi va 15 bahrni o‘z ichiga oluvchi 4 doira ixtiro qildi. Har qaysi doira qancha bahrni o‘z ichiga olsa, shuncha bo‘lakka bo‘lingan bo‘lib, ularda shu bahrlarning 6 yoki 8 ruknli solim yoki zihofli vaznlarinnig ruknlari ham keltiriladi. Doira atrofida berilgan misrani birinchi so‘zdan boshlab o‘qilsa, bir bahr, ikkinchi so‘zdan boshlab o‘qilsa, ikkinchi bahr, uchinchi so‘zdan boshlab o‘qilsa, uchinchi bahr, shu tarzdan necha bahr jamlangan bo‘lsa, barchasi kelib chiqadi. Shu tarzda doiraga birlashgan bahrlar asoslarining bir-biridan faqat cho‘ziq yoki qisqa hijolar o‘rni b-ngina farqlanishi o‘zlashtiriladi. M-n, N. ning “M.A.” asaridan o‘rin olgan “Doirayi mo‘talifa”da hazaj, rajaz va ramal bahrlari birlashgan bo‘lib, ular u-n misol sifatida “Ko‘ngul qon bil visolingda g‘ami hijron xayolidin” misrasi keltirilgan. Doira 3 qismga bo‘linib, har qaysisida ushbu bahrlarning musamman shakli – 8 ruknli solim o‘lchovi ruknlari o‘rin olgan. Misrani boshidan boshlab o‘qilsa, doirada berilgan mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun (V – – – / V – – – / V – – – / V – – –) ruknlariga muvofiq keluvchi hazaji musammani solim vazni, keyingi so‘zdan boshlab “Qon bil visolingda g‘ami hijron xayolidin” tarzida o‘qilsa, ruknlari mustaf’ilun mustaf’ilun mustaf’ilun mustaf’ilun (– – V – / – – V – / – – V – / – – V –) bo‘lgan rajazi musammani solim, uchinchi so‘zdan boshlab “Bil visolingda g‘ami hijron xayolidin ko‘ngul qon” tarzida o‘qilsa, ruknlari foilotun foilotun foilotun foilotun (– V – – / – V – – / – V – – / – V – –) ko‘rinishidagi ramali musammani solim vazni hosil bo‘ladi.

N. tomonidan ayni usulda munsarih, muzore’, muqtazab, mujtass 2-doira – “Doirai muxtalifa”ga, sare’, jadid, qarib, xafif, mushokil 3-doira – “Doirai muntazi’a”ga, mutaqorib, mutadorik 4-doira – “Doirai muttafiqa”ga, vofir, komil 5-doira – “Doirai muxtalita”ga tavil, madid, basit 6-doira – “Doirai mushtabiqa”ga birlashtirilgan. Sare’, mushokil, mujtass, muqtazab, muzore’, xafif, munsarih, qarib, jadid kabi 9 bahrning solim vaznlarini yana bir doiraga birlashtirib, uni “Doirai mujtamia” deb ataydi. Shu tariqa N. “Mezon ul-avzon”da 7 ta doira keltiradi. Holbu-

ki, Xalil ibn Ahmad 4, Vohid Tabriziy “Jame’ ul-muxtasar” asarida 6, Bobur esa “Muxtasar”da 9 doira keltirgan.

Aruz doiralarining ichki tuzilishi ham turlicha. Har qaysi aruzshunos doiralarning oson tushunilishiga intilib, turlicha shakllar yaratganlar. M-n, N. har qaysi bahrning ma’lum vazni ruknlarini doira bo‘laklariga joylashtirgan bo‘lsa, Bobur ularni doira ichidagi doirachalarda aks ettiradi. B. aruzshunoslar yana o‘zgacha yo‘l tutadilar.

Aruz doiralaridan hozirgi davrda ham ushbu ilmni o‘zlashtirishda unumli foydalanish mumkin. Zero, doiralar ko‘rgazmali qurollardan sanaladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Ҳожиаҳмедов А. Навоий арузи нафосати. – Т., 2006; Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т., 1998; Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Т., 1983; Сирожиддинов Ш., Юсупова Д., Давлатов О. Навоийшунослик. Дарслик. – Т., 2018; Юсупова Д. Аруз ва мумтоз поэтикага кириш. – Т., 2020.*

E.O.

ARG‘ANUN (y. – organon) – yunonlarning qadimiy musiqa asbobi. Uni Aflotun kashf etganini naql qiladilar. Maxsus meshlardan yo‘naltiriladigan havo yordamida tovushlar yuzaga keladigan yirik musiqa asbobi. U qadim (mil. av. IV asr)dan Sharq xalqlari o‘rtasida ham keng tarqalgan. A. puflab chalinadigan soz bo‘lib, uning har xil turlari ko‘p bo‘lgan. M-n, Abu Abdulloh Xorazmiy uning qovoqqa o‘xshagan torli musiqa asbobi ekani haqida ma’lumot beradi. Kavkabiy Buxoriy esa og‘iz b-n chalinadigan turi haqida gapiradi. Darveshali Changiyning aytishicha, A. ning 900 ta tori bo‘lib, uni 40 kishi chalgan. Bir torli hind A.i ham mashhur. N. ijodida ham musiqa asbobi sifatida ko‘zga tashlanadi.

M-n:

Arg‘anun savti-yu noqus uni birla har yon,
Yuz mug‘ona amal-u qavl ila g‘avg‘o erdi.

Ad.: *Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011; Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1-жилд. – Т., 2000; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988; Бурҳони қотеъ. Жилд 1. – Душанбе, 1993; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик, 1-жилд. – Т., 1983.*

E.O.

ARG‘UN BEKLARI – Arg‘un urug‘iga mansub beklar. Arg‘unlar turkiy urug‘lardan bo‘lib, o‘rta asrlarda Movarounnahr va Xurosonda yashagan. Temuriylar davrida siyosiy-harbiy hayotda ishtirok etgan, xususan, Sulton Abusaid hukmronligi yillarida (1451–1469) ularning davlatdagi mavqeyi va ta’siri ortgan. Sulton Abusaidning ulug‘ begi (amir ul-umaro) Mazidbek ham arg‘un urug‘idan edi.

A.B. XV asrning 2-yarmida, ya’ni N. davrida Xurosondagi harbiy turk zodagonlari orasida ham bo‘lgan. Amir Zunnun A., Sulton Ali A., Shoh Shujo’ A. (ko‘pincha Shohbek deb ataganlar, amir Zunnunning o‘g‘li), Ahmad Ali A., Muqim A. (Zunnunbekning o‘g‘li) shular jumlasidan bo‘lib, ularning eng ulug‘i Zunnun A.B. hisoblangan. A.B. o‘zlarining sarkash, bebosh va itoatsiz fe’llari b-n ajralib turganlar. Ularning sarkashliklari hamma yoqqa mashhur bo‘lib ketgan edi. Buni Muhammad Solihning “Shayboniynoma” asaridagi quyidagi baytdan ham ko‘rish mumkin:

Boxtardin taqi Zunnun keldi,
Sarkash firqayi Arg‘un keldi,

Arg‘unlar sulton Husayn Boyqaro davlatida turli nizolarni, siyosiy notinchliklarni yuzaga keltiruvchi salbiy kuch sifatida maydonga chiqadi. Bu xatti-harakatlarning tagida markaziy hokimiyatni zaiflashtirish va mamlakatning bir qismida mustaqil hukmronlik qilishga bo‘lgan intilish yotar edi. Ular o‘z maqsadlari yo‘lida shahzoda Badiuzzamonning otasi b-n bo‘lgan kelishmovchiliklardan ustalik b-n foydalangan, uni otasiga qarshi qayragan va harbiy jihatdan qo‘llab-quvvatlagan.

A.B.ning qilmishlari mamlakat va xalq taqdiri u-n qayg‘urgan N.ning orzu-intilishlariga zid edi. Shu sababli sog‘ligi yomonlashgani hamda rasman saroy xizmatidan iste’fo berganiga qaramay, N. ularning intilishlariga qarshi turgan. Shohning yo‘qligidan foydalanib Zunnun A. va Badiuzzamon Hirotga hujum qilganda, N. Muhammad Valibek va ayrim beklar b-n shahar mudofaasini tashkil etgani, Husayn Boyqaro kelguncha poytaxtni o‘z qo‘llarida saqlab turgani yoki O‘langi Nishinda Husayn Boyqaro Badiuzzamon va A.lar qo‘shini b-n to‘qnashganda, N. Hirot va uning atrofidagi sipohiylarni safarbar qilib, yordamga yuborgani buning yaqqol dalilidir:

A.B.ning nomi, N.ning ularga bo‘lgan munosabatini bildiruvchi so‘zlar shoir asarlarida uchramaydi. Lekin “M.Q.”ning 7-faslida N. shohga itoat qilmaydigan, botirlik lofini uruvchi mutakabbir sipohiylarning umumlashma qiyofalarini shunday tasvirlaydi: “... alardin ne Tengrig‘a toatdur va ne shahg‘a itoat...”, “...ko‘ngullari to‘bichoq sekreturdin orom topmoq va so‘zlari bosh yalang yuzga chopmoq”.

A.B.ning keyingi taqdiriga oid ma’lumotlar shuki, Zunnun A. Shayboniyxon b-n urushda o‘ldirilgan. Uning kichik o‘g‘li Muqim A. o‘z ajali b-n o‘lgan. Qolgan arg‘unlar Qandahorda bo‘lganlar, lekin keyinchalik, Boburning siquviga dosh berolmay, u yerdan ketishga majbur bo‘lganlar va Tatta viloyatiga o‘tib, o‘sha yerda o‘rnashib qolganlar.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Хондамир. Ҳабиб ус-сияр. – Т., 2011; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985; Бобур. Бобурнома. – Т., 2011; Эргашев Қ. Некоторые аспекты государственной деятельности Алишера Навои. – Т., 2009.*

Q.E.

ARG‘USHTAK – turli xursandchilik marosimlarida dutor, tanbur, doira va ashula jo‘rligida ijro etiladigan xalq raqsi. Odatda, A. ayollar tomonidan bajarilgan. A. raqsining asosiy xususiyatlaridan biri raqqos(a) qo‘llarini turli tomonga harakat qildirgan holda o‘ng oyog‘ini yerga urib o‘ynagan. A. atamasi, avvalo, N.ning “B.V.” devonidagi bir g‘azalda uchraydi. Misralardan ma’lum bo‘ladiki, musiqa ilmini o‘zlashtirgan N. g‘azallarga kuy bastalash b-n bir qatorda Oliy majlislarda ularni kuylagan. Husayn Boyqaro tanbur chalib, yigitlar raqs tushganligiga quyidagi baytni dalil sifatida keltirishimiz mumkin:

Xush ulki, bazmda onlar teparda arg‘ushtak,
Shah anda tambura cholib, Navoiy desa qo‘shuq.

Zero, shoir aytayotgan badiiy ifoda A. raqsiga berilgan ta’rifga muvofiq bo‘lib, turli bazm, shodiyonalarda tez-tez murojaat qilingani ayonlashadi.

N. bu b-n cheklanib qolmay, “M.A.” asarida “Basiti musammani solim” bahri haqida yoza turib, “qo‘shiq”ning A. usulida mashhur bo‘lgani haqida xabar beradi: *“Yana “qo‘shiq”durkim, arg‘ushtak usulida shoyi’dur va ba’zi advor kutubida ul usul zikr bo‘lubdur va ul surud a’robining teva surar hudilari vazni bila madidi musammani solimda voqe’ bo‘lur, aning asli bu nav’durkim,* bayt:

Vahki, ul oy hasrati, dard-u dog‘i furqati,
Ham erur jonimg‘a o‘t, ham hayotim ofati.

Foilotun foilun foilotun foilun

Ammo bu latif zamonda va sharif davronda bu surudni ramal musammani mahzuf vaznig‘a elitib, musiqiy va advor ilmida muloyim tab’liq benazir yigitlar g‘arib nag‘amot va alhon bila ajab tasarruflar qilib, Sultoni sohibqiron majlisida ayturlar”.

Shuningdek, A. raqsiga yigitlar ham o‘ynaganini N. bu yerda ham ta’kidlab o‘tgan. Bu o‘yin hozir ham Surxondaryoning ayrim hududlarida saqlanib qolgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик, 3-жилд. – Т., 2011; Алишер*

Навоий. Мезон ул-авзон. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик, 1-жилд. – Т., 1983; Нурджанов Н. Таджикский народный театр. – М., 1956; Авдеева Л.А. Из истории узбекской национальной хореографии. – Т., 2001; Авдеева Л. А., Қодиров М. Х., Исматова Ю., "Тановор" рақси жилолари. – Т., 2002.

B.R., S.O'.

ARZONIY – berish, bag'ishlash; loyiq ko'rish, sazovor, bilish kabi ma'nolarga ega so'z. N. lirik va nasriy asarlarida *arzoniy* so'zini "ko'nglimni ayla arzoniy", "ofiyati arzoniy tut", "salomate arzoniy tut", "jonni arzoniy tut" shaklida bag'rikenglik b-n o'ziga, zamondoshlariga, olam ahliga, ustozlariga, jumladan, Abdurahmon Jomiyga nisbatan san'atkorona qo'llay olgan. N. *arzoniy* so'zini kimning tilidan qo'llanishiga ko'ra, o'zining tilidan va shayxlar tilidan bayon qilgan. M-n: N. "M.N."da ustozi Abdurahmon Jomiyga bag'ishlangan fiqrani o'ziga xos usulda, ya'ni unga bag'ishlangan duo va duoga yo'g'rilgan ruboiy b-n yakunlaydi va so'z mulkini olam eliga baxshida qilgan Abdurahmon Jomiyni olam ahliga sazovor ayla, loyiq ko'rgin, degan o'zining tilaklarini, ulug' muddaosini "Olam eliga bu jonni tut arzoniy" tarzida shunday ifodalagan:

Yo Rab, bu maoniy durrining ummoni,
Bu donish-u fazl gavharining koni!

Kim, aylading oni olam ahli joni,
Olam elig'a bu jonni tut arzoniy.

"M.Q."ning 46-tanbehida ulug' shoir ushbu so'zni lutf b-n "Ishq mulki obodlig'i aning ashki selobidin va shavq shabistoni yorug'lig'i, tobidin kim ahli dillar ko'ngli bu ishq shu'lasi nuridin va ul shu'la nuri sururidin ayrulmasinlar va riyoni zuhd xayliga qotilmasinlar", deya o'ziga nisbatan mohirona tarzda, ya'ni "tutma arzoniy" kabi shaklda bo'lishsizlik shaklida, ma'noda esa bo'lishlilik mazmunida bitgan, bu ham ulug' shoirning o'ziga xos uslubidan darak beradi:

Meni bedilg'a, yo Rab, bu ko'ngulni tutma arzoni,
Oni mendin ayirma, dag'i mensiz tutmag'il oni.

Ad: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. –Т.,2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т.,2011.*

B.R.

ASADOV Maqsud Husenovich (1979, Buxoro) – adabiyotshunos, f.f. d-ri, prof. "O'zbek mumtoz adabiyotida rindona ma'no va lirik qahramon xarakteri" mavzusida falsafa doktori (PhD, 2017), "O'zbek mumtoz adabiyotida soqiynoma (genezisi, taraqqiyot bosqichlari, poetik xususiyatlari)" mavzusida doktorlik (DSc, 2020) dissertatsiyalarini himoya qilgan.

"Soqiynoma: tarix va poetika" (2020) nomli monografiyasida u soqiynoma janrining shakllanishi, taraqqiyot bosqichlari va turkiy she'riyatda soqiynoma janri rivoji u-n N.ning qo'shgan hissasini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Ayniqsa, soqiynoma xarakteridagi baytlarning o'zbek mumtoz she'riyatida alohida bosqich bo'lganligini shoirning lirik asarlari va "X." dostonlari misolida keng tahlilga tortgan. Shuningdek, muallif N. "S."sining yaratilish tarixi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, XVI–XIX asrlar turkiy adabiyotda yaratilgan mazkur janr namunalariga ta'siri masalalarini atroflicha tadqiq etgan.

A.M.H.ning "O'zbek adabiyoti tarixi va yangi o'zbek adabiyoti (Alisher Navoiy hayoti va ijodi)" (2023) o'quv qo'llanmasida mutafakkir va shoir N. yashagan davr, ijtimoiy, siyosiy va adabiy muhitning xarakterli belgilari, ulug' adibning tarjimayi holi, ijodiyoti, o'zbek adabiyoti tarixida tutgan beqiyos o'rni xususida so'z yuritilgan. Muallifning mazkur kitobi ta'lim jarayonida talabalarga N.ning hayoti va ijodiy merosini o'qib-o'rganish, asarlarining mazmun-mohiyatini anglash, badiiy mahorat sirlarini bilishga imkon yaratishi b-n tahsinga loyiq.

A.M.H. “Alisher Navoiy ensiklopediyasi” 4 jildligining mas’ul muharriri va asosiy mualliflaridan biri sifatida ushbu yirik tadqiqotning yuzaga chiqishiga katta hissa qo‘shgan

Ad.: *Асадов М. Риндона маъно ва руҳият тасвири. – Т., 2019; Асадов М. Соқийнома: тарих ва поэтика. – Т., 2020; Asadov M. O‘zbek adabiyoti tarixi va yangi o‘zbek adabiyoti (Alisher Navoiy hayoti va ijodi). O‘quv qo‘llanma. – T., 2023.*

S.O‘.

ASBAT (Asbot) – Qur’oni Karimda tilga olingan va N. asarida sharhlangan so‘z. N.ning yozishicha, Kalomullohda mazkur bo‘lgan ushbu so‘z Ya’qub (a.s.)ning o‘n ikki o‘g‘lini anglatadi. “T.A.H.”da N. ularning har birining otini va Ya’qub (a.s.)ning qaysi xotinidan tug‘ilganini ko‘rsatib o‘tadi: “Va aksar tavorih ahli ittifoqlari borkim, Ya’qub (a.s.)ga Layyodin olti o‘g‘il bo‘ldi: Rubil, Sham’un, Yahudo, Lodi, Zarbun, Yashhar va Rohildin Yusuf (a.s.) va Ibn Yamin mutavallid bo‘ldilar va Falihadin Don va Nafqal va Zulfadin Kov va Asra”. So‘ngra u “A.” atamasining ana shu jamoatga nisbatan qo‘llanganini ta’kidlaydi: “Kalomullohda asbat lafzikim mazkurdir, iborat ushbu jamoatdindur”.

A.dan tarqalgan nasllar keyinchalik juda ko‘p sonli qavmga aylangan va Bani Isroil deb atala boshlangan. Ya’qub (a.s.)ning o‘n ikki o‘g‘lining har birining avlodi alohida bir tarmoqni tashkil etgan va shunga muvofiq ravishda Bani Isroil o‘n ikki sibtga (sibt – asbatning birlik shakli) bo‘lingan. Payg‘ambarlar va maliklar ana shu o‘n ikki sibtdan chiqqan. Bu haqda “Qisasi Rabg‘uziy” muallifi shunday ma’lumot beradi: “Bani Isroil o‘n ikki sibt erdilar. Ammo yalavochlar bor erdi, maliklar bor erdi. Yalavochliq, taqi maliklik bu o‘n ikki sibt orasida evrulur erdi. Bir sibtdan yalavoch bo‘lsa, bir sibtdin malik bo‘lar erdi. Bani Isroil hargiz yalavochsiz, maliksiz qolmas erdi”.

N. A. haqida boshqa muhim va qiziqarli ma’lumotlarni ham bayon qiladi. Jumladan, Bani Isroilning A. tomonidan qirg‘in qilinishiga ham to‘xtaladi. Buning sababi shu bo‘lganki, Bani Isroil Somiriyning qutqusi b-n yo‘ldan ozib, go‘solaparast bo‘lgan edilar. N. faqat A.ga mansub o‘n ikki ming kishi to‘g‘ri yo‘ldan chiqmagani, shundan so‘ng Tangridan A.ga Bani Isroilni qirg‘in qilishga yorliq bergani haqida shunday so‘zlar bitadi: “... qavm Somiriy ig‘vosi bila go‘solaparast bo‘lub erdilar, magar o‘n ikki ming kishikim A.din erdilar... Haq taolodin xitob keldikim, ul o‘n kishikim go‘solaparatlik qilmaydurlar, jami Bani Isroil elini qatl qilsunlar”. Muso (a.s.) Bani Isrolning gunohini Tangri taolodan tilab, duo qiladi va duosi ijobat bo‘lib, qavmning bir qismi omon qoladi

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

Q.E.

ASMOYI HUSNA – Alloh taoloning go‘zal ismlari. Asmoyi husna haqida Qur’oni Karimning bir qancha oyatlarida xabar berilgan: “Allohning go‘zal ismlari bordir. Bas, Uni o‘sha ismlar b-n chorlanglar (yod etinglar)” (A’rof: 180). Yoki (Ey Muhammad (s.a.v.)), ayting: “Alloh, deb chorlangiz yoki Rahmon – Mehribon, deb chorlangiz. Qanday chorlasangizlar-da (joizdir). Zero, u Zotning go‘zal ismlari border” (“Isro” surasi, 110-oyat). Bu ismlar, asosan, to‘qson to‘qqiztadan iborat deyiladi. Asmoullohga atab ko‘plab kitoblar yozilgan. N. “N.M.” asarida Sayyid Ali Hamadoniyning “Asmoulloh”ni sharhlab, kitob yozganini aytadi.

N.ning orifona g‘azallarida va “X.” dostonlarining hamd va munojot qismlarida asmoyi husnodan bo‘lgan Alloh ismlaridan biri yoki Uning sifatiga dalolat qiladigan baytlar tez-tez ko‘zga tashlanadi.

A.H.dagi: Xoliq – Yaratuvchi; Bori’ – yo‘qdan bor qiluvchi sifatlar quyidagi baytlarda namoyon bo‘lgan:

Ey qilibon qahr ila lutfung shior,
Borni yo‘q aylamak-u yo‘qni bor.
Yo‘q edilar har neki – bor aylading,
Fahm-u xirad borig‘a yor aylading.

G‘affor – bandalar aybini kechib, mag‘firat qiluvchi sifati:

Ey karaming ollida ko‘hi gunoh,
Elga uchub o‘ylaki bir parri koh.

N.ning ayrim baytlarida A.H.dan bir necha sifatlar ketma-ket keladi. M-n: Avval – hamma narsadan avval bor bo‘lgan; Oxir – hamma narsa yo‘q bo‘lganda boqiy qoluvchi va Xoliq – sifatlariga misol:

Avval o‘zung, oxir-u mobayn o‘zung,
Borchag‘a Xoliq, borig‘a ayn o‘zung.

N. “S.I.” dostonining ikkinchi bobida Allohning Karim – karamli, ko‘plab ato qiluvchi sifatiga alohida to‘xtaladi. Karamning fazilati va karam qiluvchining xususiyatlaridan, ehson-u baxshishning foydalaridan bahs yuritadi. G‘aniylarga asli ne’mat berguvchi ham, ular vositasida bandalarni ne’matlar b-n siylovchi ham Allohu Karimning o‘zi ekanini ta’kidlaydi:

Lakal-hamd, yo akramal-akramin,
Karam ahlin etgan gadoyi kamin.

Karim o‘lsa olamda har nav’ shoh,
Anga sen karam qilding ul dastgoh.

Karamdin kishi qayda sochqay diram,
Diram sen anga qilmog‘uncha karam.

Karam ahli gar sohibi toj erur,
Ki, xoni navolingg‘a muhtoj erur.

Anga sen xazoyin eshigin ochib,
Chu sochmoqqa amr aylabon, ul sochib.

Bas ul filhaqiqat karamkesh emas,
O‘zung mukrim, ul bir sabab besh emas.

A.H. – Allohning go‘zal ismlari ma’nosidan xabardor bo‘lish ulug‘ shoirning diniy va tasavvufiy asarlari mohiyatini tushunishga yo‘l ochadi

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Абдулқодир Абдураҳим ўғли. Ақоид дарслиги – Т., 2007; Турсун Аҳмад, Жуман Муҳаммадшариф. Ислом дини. – Т., 2013.*

S.R.

“ASNOD VA MUKOTIBOTI TARIXIYI ERON AZ TEMUR TO SHOH ISMOIL” (“Temurdan to Shoh Ismoilgacha bo‘lgan Eronning tarixiy hujjatlari va xatlari”) – N. yozishmalariga oid bo‘lgan muhim manba. Mazkur to‘plamda N. faoliyati haqida qimmatli ma’lumotlar bayon qilingan.

Tarixiy hujjatlar va xatlarni o‘z ichiga olgan va nomidan ko‘rinib turganidek, Amir Temurdan to Shoh Ismoil Safaviygacha bo‘lgan davrdagi (XIV–XVI asrlar) yozishmalar haqida ma’lumot beruvchi bu asar 1341-hijriy yili – Tehronda nashr etilgan bo‘lib, uning to‘plovchisi doktor Abdul Husayn Navoiydir.

Bu asarda uchraydigan hujjat va maktublar garchi bizgacha yetib kelgan tarixiy asarlarda mavjud bo‘lsa-da, biroq uning qimmati shundaki, to‘plam Xuroson, Movarounnahr, Eron va Turkiyaga taalluqli bo‘lgan hujjat va maktublarning ma’lum qismini yaxlit bir joyga yig‘ib bergan.

Ushbu to‘plamdan N. faoliyati haqida muhim ma’lumotlarni quyidagi tasnif asosida o‘rganish mumkin:

1. Sulton Husayn Boyqaroning haj haqida Amir Alisherga yozgani.

2. Amir Alisherning javobi.

3. Hazrati Sulton yaqini (N.)ning Shirvon podshohi Farruxga yozgani.

Abdul Husayn N. mazkur to‘plamni tuzishda Faridunbekning 1574-1575-yy.da tuzgan “Munshaot”i, Haydar Ivog‘lining 1632–1633-yy.da tuzgan “Munshaot”i, Abdulloh Marvoridning 1516-y.gacha bo‘lgan davrda tuzgan “Munshaoti Mavorid”dan unumli foydalangan.

Ad.: *Ўринбоев А., Ҳасаний М. Навоий замондошлари мактубларида. – Т., 1990;*

Норқулов Н. Темурийлар даври маданияти тарихидан лавҳалар. – Урганч, 1996.

B.R.

ASLIY VATAN – tasavvufda ruhlar olamiga ishora. “Vatanni sevmak iymondandir” hadisini ham ilohiy olam bo‘lmish V. ma’nosida talqin qiladilar. Abu Ali ibn Sino ham “Ayniya” qasidasida abadiy manzil deganda A.V.ga ishoralar qiladi.

Qochib adamg‘a boray aql-u fahm-u donishdin,
Vatan borinda bu yot el aro ne bor manga?!

N. ustozi Abdurahmon Jomiyga bag‘ishlangan marsiyasida yozishicha, haqiqat ahli nazdida, bu o‘tkinchi dunyo dil ahlining joyi emas, bu toifaning A.V. boshqa yerdadir:

Nazdi arbobi yaqin dori fano joe nest,
Vatani asliyi in toifa joyi digar ast.

Ad.: *Алишер Навоий. Девони Фоний. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва табъироти ирфоний. – Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.); Инжулар уммони. – Т., 1988.*

E.O.

“ASLIYAT VA TABDIL MUAMMOLARI” – o‘quv qo‘llanmasi M.Abdulxayrov tomonidan Oliy o‘quv yurti filolog talabalari va tadqiqotchilar u-n tayyorlangan. Qo‘llanmada N. asarlarining 10 jildlik “To‘la asarlar to‘plami” va 20 jildlik MATdagi matnni eski o‘zbek yozuvidan joriy alifboga tabdil qilish qonuniyatlari, yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar matnshunos mutaxassislarga yo‘riqnoma sifatida ko‘rsatilgan. Kitob “Navoiy asarlari asliyatining hozirgi o‘zbek yozuviga tabdili holati va muammolari”, “Navoiy asliyati tabdilida fonetik xususiyatlar tahlili”, “Navoiy asarlari tabdilining transliterasiyasi jarayonida so‘z tadqiqi tahlili”, “Navoiy asarlari tabdilini tayyorlashda mumtoz lug‘atlarning o‘rni” kabi masalalar tahliliga qaratilgan 8 bo‘limdan iborat. Matnni tabdil qilish jarayonida unli harflar b-n ishlash, shakldosh va sinonim so‘zlar, harflarning aytilish ohangiga ko‘ra ma’noning o‘zgarib borishi va ayni variantni tanlash zarurati misollar asosida tushuntirilgan. N. asarlari matnini tabdil qilish bo‘yicha ishlab chiqilgan tamoyillar, matniy-qiyosiy tadqiq usullari, izoh va sharhlash prinsiplari N. asarlarining mukammal nashrini yaratishda metodik manba vazifasini o‘tashi b-n ahamiyatli.

Ad.: *Abdulxayrov M. Asliyat va tabdil muammolari. Navoiy asliyati tabdillari. O‘quv qo‘llanma. – T., 2023.*

O.T.

ASO (ar.) – 1. Hassa, tayoq. 2. Majoziy: takyagoh, ya’ni ko‘mak beruvchi, himoya qiluvchi, homiy; suyanchiq, tayanch; najot manzili.

A. tasavvufda solikning Haq zotiga bo‘lgan ishqini anglatadi. Aziziddin Nasafiyning yozishicha, dunyo bir sehrgar-u ishq Musoning A.sidir. Dalil va nazariy muqaddimalar ham A. deyiladi.

S.Uludog‘ning ma’lumot berishicha, tariqat yo‘lini bosib o‘tayotgan so‘fiylar u-n A. tutish bir an’ana tusini olgan. Ibrohim (a.s.) va Muso (a.s.) ning A.lari bo‘lgan. Muhammad (s.a.v.) ham A. tutganlar. U zamonlarda A. ham yarog‘ vazifasini bajargan, ham ba’zi ehtiyojlarga xizmat qilgan.

Ilmda A. tutmoq yoki hassaga tayanmoq payg‘ambarlarga xos odatdir. N.ning mana bu baytida shunga ishora etilgan:

Rostlig‘ irshodi bu yo‘lda qilur tolibg‘a pir,
Rost ul yanglig‘ki, Musog‘a aso berdi Shuayb.

Tasavvufda A. shayxlik nishoni. Ramziy ma’noda muridning murshid, solikning valiy va eranlar madadi, nafasiga muhtojligini ifodalaydigan bir timsol. Shu ma’noda “N.M.”da bir qancha rivoyat va hikoyatlar naql etilgan. Ulardan birida Shayx Ibrohim Hammolning karomati yoritilgan: “Mashoyix akobiridin erdi. Maqomi Mug‘om tog‘i erdi. Bu toyifadin biri aytibdurki, Mug‘om tog‘ida yo‘l iturdum. Bir pir ilayimga

keldi. Eski po‘stin kiygan. Dedi: Allohu akbar, hamonoki yo‘l iturubsen? Dedim: bale! Dedi: o‘ttuz yildurki, bu tog‘da odam yuzin ko‘rmaydurmen. Va A.sin menga berdiki, bu sanga yo‘l boshlasin. Bir necha qadam yo‘l bordim, o‘zumni Antoqiyada ko‘rdum. A.ni qo‘ydumki, vuzu’ qilg‘aymen, A. g‘oyib bo‘ldi. Antoqiya ahliga ul so‘zni ayttim, ersa dedilarki, ul shayx Is’hoq bin Ibrohim Hammoldurkim, kishi ani oz ko‘rar”.

Tasavvuf adabiyotida A.ga tegishli bunday manoqibiy hikoyatlar juda ko‘p yaratilgan.

N. A.dan poetik obraz sifatida ishqiy ma’no, holat va kayfiyatlarni ifodalashda samarali foydalangan:

Ey Navoiy, xasta ko‘nglumga madaddir novaki,
Rost andoqki, zaif elga berur quvvat aso.

Mana bu baytda A. vositasida qarilik qismatiga e’tibor qaratilgan:

Chu qad egildi, aso birla bog‘i bo‘lmas tuz,
Eshitsa tuz anga bir kunji bayt ul-ahzondur.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Сулаймон Боқирғоний. Боқирғон китоби. – Т., 1991; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва табъироти ирфоний. – Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.); Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005; Истилоҳоти сўфиён. – Теҳрон, 1388 (ҳ.-ш.).*

I.H.

“ASRLAR OSHA MUSHOIRA” – Adabiyotshunos Sodir Erkinovning Xusrav, Shirin, Farhod obrazlarining paydo bo‘lishi, ularning xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyotga kirib kelishi, Xusrav va Shirin, Farhod va Shirin orasidagi sevgi qissalarining folklor va adabiyotdagi talqinlari, “Xusrav va Shirin” hamda “F.Sh.” dostonlarining xamsanavislikdagi evolyusiyasi tadqiqi va tahliliga bag‘ishlangan risolasi. Uning “F.Sh.” – ilhombaxsh qissa” degan ilk faslida mazkur mavzuda yozilgan dostonlar xususida fikr yuritiladi. Tadqiqotchilar tomonidan 100 dan ziyod “X.” va “X.” mualliflari aniqlangan. N. “X.”si esa nafaqat uning xamsanavislikdagi, balki o‘zbek adabiyotining Sharq so‘z san’atidagi yuksak mavqeyini ham aks ettiradi. “F.Sh.” dostonida shoir o‘rtaga qo‘ygan masalalarning qamrovi nihoyatda keng bo‘lib, ularning badiiy talqinida N. o‘ziga xos yo‘l tutgan, katta mahorat ko‘rsatgan.

“Xalq dahosi yaratgan qahramonlar” faslida Xusrav, Shirin va Farhod obrazlarining kelib chiqishi, ular o‘rtasidagi sevgi qissasining xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyotdan o‘rin olishi tarixi yoritiladi. M-n, xalq qarashlariga ko‘ra, Farhod afsonaviy toshtarosh va temirchi bo‘lgan. Kuch-qudratiga ko‘ra u hatto dev sifatida ham talqin qilingan. Xusrav va Shirin sevgisi qissalariga bu obraz X–XI asrlarda kelib qo‘shilgan. Shirin tarixiy shaxs bo‘lib, bu obrazning ildizlari “Avesto”dagi suv ma’budasi Ardvisuraga borib taqaladi. Xusrav obrazining prototipi esa qadimgi Eronning sosoniylar sulolasiga mansub hukmdor Xusrav Parviz ekani ma’lum.

“Muhabbat va mehnat dostoni” faslida “Xusrav va Shirin” hamda “F.Sh.” dostonlarining yozma adabiyotda Abulqosim Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Orif Ardabiliy, Amir Xusrav Dehlaviy, Ashraf, Abdurahmon Jomiy, N. kabi so‘z san’atakorlari tomonidan ishlanishi, bu ishq dostoni syujetining rivojlanib, o‘zgarib va takomillashib borish bosqichlari tadqiqot doirasiga tortiladi.

“Adolat va osoyishtalik tilsimin izlab” nomli salmoqli fasli N. qalamiga mansub “F.Sh.” dostoni tahlilini o‘z ichiga oladi. Unda shoir dostonining o‘ziga xosligi, salaflarining shu mavzudagi asarlaridan farqli jihatlari, syujeti va obrazlari, badiiy xususiyatlari, muallif o‘z davri b-n bog‘liq ravishda ko‘targan ijtimoiy, ma’naviy-axloqiy masalalar atroflicha tadqiq etiladi

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Эркинов С. Асрлар оша мушоира. – Т., 1977.*

M.M.

“ASRORNOMA” – taniqli mutasavvif shoir Farididdin Attorning ilohiy ma’rifat sirlari va in-

sonning o‘zligini tanishidan bahs etuvchi asari. Uni o‘ziga xos irfon kitobi ham deydilar. Insonga Haqni va o‘zini tanitish, mohiyat falsafasi va insonni kamolotga yetkazish masalalarini badiiy talqin qilishga bag‘ishlangan mazkur asar 22 maqoladan iborat. Alloh taologa hamd, Muhammad (s.a.v.) na’ti va Me’roj voqeasi tasviri, choryorlar ta’rifiga bag‘ishlangan an’anaviy muqaddima boblardan keyin insonning yaratilishi, ishq, dunyo, haqiqat, borliq kabi masalalar nazmiy talqin qilinadi. Har bir mavzu falsafiy mushohadalar, pand-u nasihat asosiga qurilgan bo‘lib, ilgari surilgan fikr va mulohazalar turli naql hamda rivoyatlar vositasida keng va teran ochib beriladi. Hazaji musaddasi maqsur (mahzuf) vaznidagi (mafoiylun mafoiylun mafoyil (fauvlun) – V – – – / V – – – / V – –) ushbu doston shirali til va ravon uslubda yozilgan.

“A.”da bir qator so‘fiyona istilohlar nazmiy sharhlangan. Javonmardlik borasida bahs yuritilib, donishmandlik, mardlik, saxovat, ezgulik kabi fazilatlar ulug‘lanib, dunyo, nafs, kibr, qahr-u g‘azab, baxillik, g‘aflat, yolg‘onchilik singari illatlar qoralanadi. M-n:

Jahonni bir ekinzor desa bordir,
Gahi unda xazon, gohi bahordir.
Biror g‘amsiz kishini ko‘rmadim men,
Agar ko‘rsam, tavof aylar edim men.

Haj ziyorati u-n Balxdan Makkaga yo‘l olgan Jaloliddin Rumiy oilasi Nishopurda Farididdin Attor b-n uchrashadi. Avliyo va shoir 12 yashar Jaloliddinga o‘zining “A.” asarini taqdim etadi. N.ning “N.M.” tazkirasida ma’lumot berishicha, “Mavlono doim ul kitobni o‘zidin ayirmay, o‘zi bila asrar emish va haqoyiqu maorif adosida iqtidosi alarg‘adur. Andoq debdurki:

Girdi Attor gasht Mavlono,
Sharbat zi dasti Shams budash no‘sh.

Tarj.: Mavlono Attor atrofida yurdi-yu, Shams (Shamsiddin Tabriziy) qo‘lidan sharbat ichdi.

Va yana bir yerda debdurki:

Attor ro‘h budu Sanoiy du chashmi o‘,
Mo az payi Sanoyivu Attor omadem.

Tarj.: Attor ruh edi-yu, Sanoiy uning ikki ko‘zi, biz Sanoiy va Attor izidan keldik.

“A.” O‘zbekiston xalq shoiri J.Kamol tomonidan o‘z vaznida o‘zbek tiliga o‘girilib, I.Haqqulning “Attor kashf etgan asror” nomli salmoqli so‘zboshisi b-n nashr etilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т.. 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд; Шайх Фаридуддин Аттор. Асрорнома. – Т., 2008; Шайх Фаридуддин Аттор Нишопурий. Асрорнома (“Мантиқ ут-тайр”, “Асрорнома”, “Илоҳийнома”, “Панднома”, “Булбулнома”, “Уштурнома”). – Т., 2012.; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988.*

E.O.

ASRORI TARIQAT – tariqat sir (lar)i. Soliklar nazdida, A.T. haqiqat ahvolidan iborat. Chunki tariqat shariatning siri, haqiqat esa tariqatning. Tariqat shariatsiz vasvasa bo‘lsa, haqiqat tariqatsiz kufrdir. Har bir pirning o‘z tariqati sirlarini tushuntirishi – ma’naviy irshodiga nisbatan ham A.T. deyiladi. Murshidning suluk davomida kashf etgan sirlari hamda ularning shayx va muridlar orasida pinhon qolishi ham ko‘zda tutiladi. M-n, N. “N.M.” tazkirasida Abu Tolib Muhammad b. Ali b. Atiya Horisiy Makkiy (q.s.) zikrida “Ul “Qut ul-qulub” kitobining sohibidurki, tariqat asrorining majmaidur”, – deb yozadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва таъбироти ирфоний. – Теҳрон, 1370 (ҳ.-ш.); Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005.*

E.O.

“**ASTAG‘FIRULLOH”** – undov so‘z. Allohga tavba qildim, Allohdan yaxshilik so‘rayman, tavba, Alloh o‘zing kechir, Alloh saqlasin, kabi ma’nolarni bildiradi. Qur’oni Karim va hadislarda istig‘for aytishi haqida alohida targ‘ib va tashviq qilingan. Hazrati Payg‘ambarimiz (s.a.v.) bir kunda 100 marta istig‘for aytaman” degan so‘zlari ummatlarini ham istig‘for aytishga undagan. N. bu so‘zni asarlarida, asosan, tavba ma’nosida keltiradi. M-n, “S.I.” dostonida shunday yozadi:

Bu damkim xirad mendin ogohdur,
So‘zum borcha astag‘firullohdur.

Yoki A.ni asosiy obrazlar nutqida ishlatadi. “F.Sh.”da Farhodning Shiringa yozgan maktubining oxirida Farhod yurti, ota-onasini eslaydi va u nima bo‘lsa taqdirdan bo‘ldi, deya maktubini shunday xulosalaydi:

Chu men devona o‘zdin erman ogoh,
Ne sahv ettim raqam, astag‘firulloh.

Dostonda A.ni gohida N. an’anaviy istig‘for shaklida ham qo‘llagan. M-n, Xusrav va Farhod munozarasida Farhodning Xusravga qarata aytgan keskin va nafratga to‘la ohangdagi javob nutqida “istig‘for qilg‘il” deya buyruq beradiki, bu ruhiy holatni shoir shunday jonli ifodalagan:

Dedi: bu ishqdin inkor qilg‘il!
Dedi: bu so‘zdin istig‘for qilg‘il!

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Навоий асарлари луғати. – Т., 1972.*

B.R.

ASTROBOD – hozirgi Eronning shimoli-g‘arbida joylashgan viloyat va shahar. A. – yulduz (fors); daraxt (ibroniy).

A. Jurjonga yaqin, tog‘ yonbag‘ridagi obod shahar bo‘lib, Xuroson va Markaziy Osiyoga o‘tadigan karvon yo‘lida joylashgan. Shuning u-n ham A. Husayn Mirzo va boshqa hukmdorlar u-n asosiy darvoza vazifasini o‘taydigan viloyat hisoblangan. O‘rta asrlarda Temuriylar davlati tarkibiga kirgan. Husayn Boyqaro va N. zamonida mamlakatning eng obod, boy, hosildor viloyati hisoblangan va xazinaga katta daromad keltirgan. Bundan tashqari, mazkur davrda temuriylar davlatining hududi bir muncha kichraygani tufayli A. juda katta siyosiy, iqtisodiy va strategik ahamiyatga ega viloyat hisoblanib qolgan edi. Husayn Boyqaro hukmronligining dastlabki yillarida bu yerda amir Hasan Shayx Temur, undan so‘ng amir Valibek hokim bo‘lgan. Keyinchalik, birin-ketin Mo‘g‘ulbek, N., Badiuzzamon mirzo, Muzaffar mirzo va Muhammad Husayn mirzo A.ni idora qilgan. N. 1487-y.da A. hokimi etib tayinlanishi nafaqat ichki vaziyat, balki tashqi siyosiy-harbiy jarayonlar yuzasidan ham taqozo etilgan edi. Sulton Husayn Boyqaroning shu munosabat b-n Iroq hukmdori Sulton Ya’qubga yo‘llagan maktubi shundan dalolat beradi. Sulton Husayn tobora kuchayib borayotgan Oqquyunlilar davlati b-n yaxshi munosabatlar o‘rnatishdan manfaatdor edi. A.ning, umuman, davlatning g‘arbiy chegaralarining xavfsizligini ta’minlash Sulton Ya’qub b-n do‘stona aloqalar o‘rnatish A.ga davlat arbobi va diplomat sifatida katta tajribaga ega bo‘lgan kishini hokim etib tayinlashni talab etardi. Iroq hukmdori Ya’qubbek N.ni qattiq hurmat qilar, Ya’qubbekning a’yonlari orasida ham N.ning do‘stlari bor edi. Bularning hammasini Husayn Boyqaro yaxshi bilgan va uning qarori yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib qabul qilingan. Sulton Ya’qubga yo‘llagan xatida u N.ni A. hokimi qilib tayinlashdan ko‘zlangan asosiy maqsad ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshilash, do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilikni yo‘lga qo‘yish ekanini ta’kidlaydi. Keyingi voqealar bu qarorning to‘g‘riligini ko‘rsatdi. N.ning o‘ziga yuklangan vazifalarni a’lo darajada uddalagani haqida tarixiy manbalar guvohlik beradi. “Ravzat us-safo” muallifi bu haqda shunday yozadi: “... ra’iyati uning adolat-u insofining barakoti b-n bedodlik zulmatidan najot topib, tinchlik va omonlik, farog‘at va osu-

dalikka erishdilar. Mozandaron, Rustamdor, Gilon viloyatlarining hokimlari ul janobning A.ga hokim etib tayinlanganini eshitib, itoat gardanlarini uning yelkasiga qo‘yib, A.ga maktub b-n elchilar orqali munosib tuhfa va hadyalar yuborib, ixlos javohirlarini arz tovog‘iga qo‘ydilar”. Oqquyunli davlati b-n yaxshi munosabatlar o‘rnatilgani haqida shunday deyiladi: “Astrobod viloyati ul hashamatli amirning masnadi bo‘lgan o‘sha kunlari oliy darajali podshoh Sulton Ya’qub mirzo bir necha bor so‘zamol va ishonchli odamlarini faxrli choponlar va mo‘l-ko‘l tansiq mollar, inoyatli maktublar yuborib, muhabbat va do‘stlikni kamoliga yetkazdi. N. asarlarida A. qayta-qayta zikr etilgan: “...Mavlono Kotibiy Astrobodda toun marazi bila o‘tti...” “Mavlono Mushtariy – Astrobodlig‘dur. O‘z vaqtida mashohirdin erdi...” “...Pahlavon Muhammad Go‘shtingirkim, xo‘b fazoil bila orostadurkim, ... faqir Astroboddin bu ruboiyni Pahlavon xizmatlarig‘a bitib erdimkim...”

N. ikki yilga yaqin A.da turib, u yerda xayrli ishlarni amalga oshirgan, binolar qurgan. Xalq hayotini yaxshilashga oid chora va tadbirlarni amalga oshirgan va shu tariqa bu yerda ham o‘zidan yaxshi nom qoldirgan. Shu b-n birga u Hirotni, u yerdagi do‘stlarini sog‘ingan. Astrobodda o‘zini g‘arib his qilgan. Bu hol uning she’rlarida ham aks etgan:

Ko‘ngul mulkin istar obod-u buzar xayli firoq,
To Navoiy azmi mulki Astrobod ayladi.

N. Hirotga qaytgandan keyin ham bu viloyatdagi ishlardan xabardor bo‘lib turgan, viloyatning tinchligi, obodligi, xalqning yaxshi yashashi haqida qayg‘urgan. Uning o‘zidan keyin A. hokimi etib tayinlangan Badiuzzamonga yozgan xati shundan dalolat beradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Султон Ҳусайннинг Яъқуббекка мактуби // Адабий мерос. – Т., 1982, №2; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985; Али Акбар Деҳхудо, Луғатнома, 3-жилд. – Техрон, 1998; Ўзбек адабиёти тарихи, 2-том. – Т., 1977.*

Q.E.

ASQAD MUXTOR (1920, Farg‘ona – Toshkent, 1997) – O‘zbekiston xalq yozuvchisi (1980). Hamza nomidagi respublika Davlat mukofoti (1972), “Do‘stlik” ordeni b-n mukofotlangan (1995).

Atoqli adib “Tundaliklar”ining “Birinchi daftari”da N.ning turkiy tilda qilgan samarali ijodi Hisom Kotib va XII asrning zakiysi Adib Ahmad baytlari b-n qiyoslagan. A.M. Iskandar haqida doston yozgan Xusrav, Jomiy, Tojiddin Ahmadiy kabi o‘nlab Iskandarnomalar mualliflari qatorida N. nomini tilga olgan va uning “S.I.” asariga ishora qilgan. U N.ni Bayron, Pushkin, Gyote va Heyne, Nizomiy, Essel, Shekspir nomlari b-n bog‘lagan. N.ning she’riy so‘z haqidagi quyidagi satriga adib o‘quvchi diqqatini jalb qilgan:

Chun bu nasim esdi azal tog‘idin,
Muncha gul ochildi jahon bog‘idin.

Boshqa o‘rinda u shoirning “ko‘ngil Ka’basi”ni olamning qiblasiga o‘xshatadi va iltijo qiladi: “Yo Rab, ani (so‘zni) xalq dilafro‘zi et!”, deya so‘zga alohida diqqat qilgan.

“Birinchi daftar”ning bir o‘rnida Asqad Muxtor N.ning turkiy tilda bitgan “M.N.” asarini yuksak e’tirof b-n eslagan. Umuman, u Sharq va G‘arb dunyosidagi mashhur shaxslarning qimmatli fikrlari, shohbaytlari, insoniyat tafakkuri rivojiga qo‘shgan hissasi b-n bog‘liq o‘rinlarda N.ning nomini esga olgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Асқад Мухтор. Сайланма. – Т., 2020.*

B.R.

ASQALINUS – qadimgi Yunon faylasuf olimi Iskilinos Sharq ilmiy, tarixiy va badiiy

adabiyotida shu nom ostida yuritilgan. N. “S.I.” dostonida A. el-yurtni tutish, davlatni boshqarish masalalarida Iskandarga maxsus “Xiradnoma” – pand-u nasihatlar kitobi yozgan 7 donishmandning (Arastu, Aflotun, Suqrot va boshqalar) biri sifatida talqin etilgan. Insonparvar shoir A. tilidan mamlakat ahvoli, xalq hayoti shohning qanday ekani b-n bevosita aloqador, hukmdor adolatli bo‘lsagina, el-u yurt tinch va obod bo‘ladi, agar u zulmkor bo‘lsa, cheksiz zulm-zo‘ravonlik eshigi lang ochilib ketadi, kabi o‘tkir ijtimoiy fikrlarni ilgari suradi, shoh odil bo‘lishi kerak, degan qat’iy xulosani bayon etadi. Mana, A. “Xiradnoma”sining asosiy g‘oyalari:

Qayu shahki – yo‘q adl ila dod anga,
Ulus birla mulk o‘lmas obod anga!

Chu shah zulm sori uzotti ilik,
Ochildi ulug‘ zulm uyiga eshik.

Aning zulmi kishvarg‘a oncha emas,
Ki, zolim ne aylasa – so‘z demas.

Agar shahga ish lutf-u gar kin erur.
Eliga hamul sheva oyin erur...

Kerak shah adolat shior aylagay
Ki, zulm ahlini xoksor aylagay!

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8 жилд. – Т., 2011.*

A.A.

AS’HOBI ISHORAT (Ahli ishorat) – botiniy ilm sohiblari. Ilm maqomidan o‘tib, shuhud maqomiga yetganlar; oriflar. Bu toifa so‘z va fikrlarini ishorat yo‘li b-n anglatadilar. Ustozi Jomiyning “Nafahot ul-uns” tazkirasini “N.M.” nomi b-n tarjima qilgan N. asar muqaddimasida bu orzusi haqida jumladan shunday yozadi: “Doim oshufta xotirg‘a kelur erdi va parishon xayolg‘a evrulur erdikim, ul kitob alfozi forsiydur, arabiyg‘a payvasta va iborati ishorat ahli tiliga vobasta va ul tillar vuqufidin bahravarlar va ul iborat-u ishoratdin boxabarlar ul alfozdin o‘z qobiliyatlari xurdida va ishtig‘ollari muqobalasida naf’lar toparlar va fayz elturlar”.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва таъбироти ирфоний. – Теҳрон, 1370 (ҳ.-ш.).*

E.O.

AS’HOBI KAHF (ar. – g‘or egalari, g‘or odamlari) – Qur’oni Karimning “Kahf” surasi 9-26-oyatlarida hamda bir qator diniy kitoblarda rivoyati keltirilgan g‘or egalari.

Lekin N. “T.A.H.” asarida yozishicha, A.K. bobida ixtiloflar ko‘pdir. Muxtasari budirki, Yunon mamlakatining Afsus shahrida Daqyonus (imperator Detsiy) ismli zolim podshoh bo‘lgan. Ba’zilar uni butparast, ba’zilar ilohlik da’vo qilganligini aytishgan. A.K. ayrim rivoyatlarga ko‘ra, Daqyonus shoh mamlakatidagi fozil kishilarning farzandlaridir. Boshqa bir rivoyatda yosh, iymonli noib va mulozimlardir.

Yana bir manbada aytilishicha, bu yigitlar asli boshqa mamlakat podshohining 6 o‘g‘li bo‘lib, Daqyonus b-n bo‘lgan jangda asir tushadilar. Husayn Voiz Koshifiy “Tafsiri Husayniy” asarida ularning nomlarini shunday keltiradi: “Yamlixo, Maksalmino, Masalino, Martush, Barnush, Shoznush ularning cho‘poni Martunus va iti Qitmir”.

Ba’zi rivoyatlarda A.K. g‘ori Rajib deyilgan. Qur’onda zikr etilgan “Raqim” so‘zi esa g‘or mavjud bo‘lgan vodiyning nomidir. Ba’zi olimlar bu so‘z “marqum”, ya’ni nomlari yozilgan lavh ma’nosida deyishadi.

N. keltirgan Afsus shahri bu O‘rta yer dengizi sohilida joylashgan Tarsus atrofidagi qishloq, nasroniy dini taraqqiy etgan Efes shahridir. Daqyonus ham asli 302-y.da Rum taxtini egallagan Diokletian bo‘lib, nasroniylarni ommaviy qatag‘on qilgan 10 ta Rum imperatorlaridan biri va oxirgisidir.

A.K. yigitlarining sonidan boshlab kim ekani-yu, necha yil g‘orda uxlaganlarigacha turli xil

fikrlar bor. Ba’zilar ularning g‘orda uxlagan sanasini 300 yil, ayrimlar 300 yil va yana 9 kun edi, deyishadi. Ba’zi islom mufassirlari “Ular g‘orda 300 yil turdilar va yana 9 yilni ziyoda ham qildilar” degan “Kahf” surasi 25-oyati karimada kelgan yil sanasiga shunday izoh berishgan: To‘qqiz yil qo‘shilishi qamariy hisobdan kelib chiqqan. Shamsiy hisobdagi yuz yil qamariy hisobda 103 yilga to‘g‘ri keladi. N. aytganidek, yigitlarning soni borasida ham ixtiloflar anchagina. Ba’zilar ular itlari b-n birga to‘rtta edi, desa, ba’zilar itlari b-n jami 6 ta edi, deyishadi. Boshqa bir o‘rinda ular 7 kishi edi va 8-si itlari edi, deb keladi.

Rabg‘uziy “ularning adadi 8 ta edi” degan xulosani Qur’oni Karim so‘zlari asosida shunday tahlil qiladi: Ulardan biri dedi, ya’ni “**qola**” – bir odam aytdi. Ulardan uchtasi javob berdi, ya’ni “**qoluu**” – 3 odam aytdi va yana uchtasi dedi: “**qoluu**” – 3 odam aytdi, tarzida berib, yettita yigit va sakkizinchisi it edi, deydi.

N. hikoya qiladiki, ular (A.K.) saroyda yashirin ibodat qilishardi, bundan voqif bo‘lgan podshoh ularni o‘ldirish payiga tushgan. Buni bilgan yigitlar kelishib, shahardan qochishadi, “odamlarga yo‘liqib qolishdan qo‘rqib biyobong‘a tushib, bir qo‘ychi (cho‘pon)ga uchrashadi. Qo‘ychi ham, uning iti ham yigitlarga ergashib, Raqim otlig‘ g‘orga kirib ketadilar. Ularga uyqu g‘olib keladi, N. Qur’on oyati asosida ularning g‘orda 309 y. uxlaganlarini ta’kidlaydi. “Bu muddat ichida Daqyonus jahannamg‘a borib”, bir necha podshohlardan keyin “bir Xudoparast odil podshohga saltanat yetganda, as’hobi kahf Tengri taolo amri” b-n uyg‘onadilar. Oyatda bu mo‘jizani Alloh taolo keyingi ummatlar qiyomatga va o‘lgandan keyin tirilish haq ekaniga ishonch hosil qilsinlar, deb sodir etdi, deyiladi. Uzoq uyqudan uyg‘ongan yigitlar u-n “bir kun yo yarim kun” o‘tgandek bo‘ladi. Yigitlar “Tamlixo degan rafiqlarini taom keltirmoq u-n shaharga” yuboradilar. Tamlixo g‘ordan chiqib, yo‘llarning o‘zgarib ketganini, shaharga yetganda, xalqning ahvoli o‘zgargani va nasroniy dinida ekanini ko‘rib, hayratga tushadi. Taom u-n tanga uzatganida, odamlar tangani ko‘rib, yigitni podshoh huzuriga olib boradilar. Olimlar Iso (a.s.) “Injil”da Daqyonus chog‘ida bir jamoa iymonli yigitlar g‘orda uch yuz to‘quz yil uxlab, uning zamonida uyg‘onadilar”, deb xabar berganidan ogoh qilgach, “Podshoh bu ishdin masrur bo‘lub, Tamlixog‘a yo‘l boshlatib, A.K. suhbatig‘a musharraf” bo‘ladi. A.K. taom yeb, Allohga shukrona sajda qilib, yana uyquga ketadilar. Alloh irodasi b-n jon oluvchi farishta ularning jonlarini oladi. “Va ul podshoh g‘or eshikida ulug‘ gunbad yasab”, ularni dafn qiladi, u joylar xalq u-n muqaddas ziyoratgohga aylanib qoladi. Shahar aholisi g‘or ustiga ibodatxona bunyod etadi, so‘ngra ular kahf ahli necha kishi ekani (3,5,7 kishi) va ular qancha muddat g‘orda bo‘lganliklari haqida tortishadi. Ularning adadi qancha ekani yolg‘iz Allohga ayondir. N. “T.A.H.”da A.K. qissasini quyidagi ruboiy b-n tugallaydi:

Kahf ahlig‘a yuzlandi adu qayg‘usi,
Bo‘ldilar agarchi g‘orning mahbusi.
Chun ko‘zlari erdi uyquning mamlusi,
Ham oqibat etti adam ul uyqusi.

N. “M.Q.”da yaxshilarga ergashishni targ‘ib qilar ekan. A.K. voqeasiga ishora qilib, shunday deydi: “Yaxshilarg‘a erishmak – itni poklar chargasiga qotti va yomonlarg‘a qorishmoq – anbiyo avlodin jahannamg‘a uzatti”. Ulug‘ shoir “H.A.”-da o‘zidan ilgari o‘tgan 3 xamsanavis Nizomiy Ganjaviy, Xisrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiylarni ta’riflab, ularni A.K.ga, o‘zini ularga ergashgan it – Qitmirga o‘xshatadi.

Kahfi baqo ichra alar bo‘lsa gum,
Men ham o‘lay robiuhum kalbuhum.

N. “L.T.”da Shayx Najmiddin Kubro nazarining itga qanday ta’sir qilgani haqidagi hikoyani keltiradi. Payg‘ambarlar va avliyolarning nazari bayonida as’hobi kahf qissasiga ishora qiladi:

Sobiqan ham qissa o‘tmish bu qabil,
Sidqig‘a As’hobi Kahf etti dalil.

N. g‘azallarida ham “kahf iti” sadoqat va vafo timsoli sifatida keladi. G‘or egalariga ergashgan it ular safidan joy olganidek, shoir ham o‘zini yor itiga o‘xshatadi, yaxshi ko‘rgani yonidan joy olishni orzu qiladi.

Itlaringga nisbatimni rost qilsam, Kahf iti
Odamilarg‘a o‘zin qilg‘an kibidir muntasib.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Носируддин Бурҳониддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. – Т., 1991; Қуръон қиссалари Пайғамбарлар қиссаси. – Т., 2013.*

S.R.

AS’HOBI FIL – fil sohiblari; fil mingan kishilar. Muhammad (s.a.v.) tavallud topgan 570-y. da Yaman hokimi Abraha boshchiligida qudratli fillarga minib, Ka’bani buzish u-n bostirib kelgan son-sanoqsiz kofirlarni Alloh taolo o‘zining ojiz maxluqlari bo‘lmish qushlar – tayron abobillar tumshuqlarida keltirgan mayda toshlar b-n halok qiladi va Ka’bani tug‘ilajak so‘nggi payg‘ambar, yangi din va yangi ummat u-n saqlab qoladi.

Bu ibratli voqea qiyomatgacha Ka’baga yuzlanib, namoz o‘qiydigan mo‘minlarga o‘rnak, Allohning diniga qarshi turuvchi kofirlarga esa achchiq saboq bo‘lib qolgani Qur’oni Karimning “Fil” surasi orqali bildirilgan.

Rivoyat qilishlaricha, qushlar tomonidan otilgan har bir tosh bir kofirning boshini teshib kirib, ostidan chiqib ketgan ekan.

N. “H.A.”ning Badiuzzamon mirzoga pand-nasihat qilish va yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishga bag‘ishlangan 20-maqolatida shahzoda shohlikdan g‘ururlanib, Haq qahr-u lutfidan g‘ofil qolmasligini tayinlar ekan, mazkur ilohiy mo‘jizaga ishora qiladi:

Ko‘rki, ne bir lahzada bo‘ldi qatil,
Tayri abobil ila as’hobi fil.

“M.Q.”dagi 6-tanbehda esa Alloh taolo dargohining keng va ulug‘ligiga misol tariqasida ushbu voqeani tilga oladi: “Subhonalloh, ne vase’ dargoh va ne rafe’ borgohdurkim, anda pil xartumi pashsha xartumig‘a zabundur. Ne ajab, agar aql sarkashi mabhut va ilme sarnigundur aningkim, yuz qilola pili bor erdi, yarim pashshai muhlik nishig‘a zabun va zor erdi. Bu da’vig‘a ul ravshan daliledur “As’hobi fil” voqeasi va “Tayron abobil”dur”.

Ad.: *Қуръони Карим (Алоуддин Мансур тарж.). – Т., 1992; Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Фарҳанги забони тожики. Жилд 1. – М., 1969; Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. – Душанбе, 1987.*

E.O.

ATOBEK – ota o‘rnidagi kishi, ustoz, murabbiy; himoya qiluvchi, odob o‘rgatuvchi. Ota o‘rnidagi bek, amir ham deydilar. Ato – ota, bek (biyik) – katta, ya’ni katta ota tarzida ham talqin qiladilar. Go‘daklarni tarbiyalovchi va otaliq (atoliq) ma’nosida ham qo‘llanadi. M-n, sosoniylardan Yazdijurdning o‘g‘li Bahrom Yaman podshohi No‘monning qo‘lida tarbiyalanadi. Sa’d ibn Zangiy esa Sulton Sanjarning A.i bo‘lib, Fors viloyati hokimligini unga topshirgan edi. Homiysi vafotidan keyin ham u A. laqabini saqlab qoladi. Shuning u-n ham Sherozni uzoq yillar A.lar boshqarganlar. Yoki “F.Sh.” dostonida Mulkoro Farhodning A.i edi:

Hamul Farhodg‘a erdi atobek,
Ko‘rub Farhod xud oni atodek.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6 жилд. – Т., 2011; Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. – Душанбе, 1987; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Т., 1983; Бурҳони қотеъ. Жилд 1. – Душанбе, 1993.*

M.A.

ATOIY (XV asr Balx) – shoir. Undan bizgacha 260 ta turkiy g‘azaldan iborat yagona devon yetib kelgan. Devon hozir Sankt-Peterburgdagi Sharqshunoslik institutining Sharq qo‘lyozmalari bo‘limida 22V-2456 raqami ostida saqlanadi. Devonni birinchilardan bo‘lib, rus sharqshunos olimi N.Samoylovich topgan va u haqda maqola e’lon qilgan.

N. “M.N.”da A. Ahmad Yassaviy avlodidan bo‘lgan “Ismoil ota farzandlaridan” ekanini, “N.M.”da esa “Ismoil ota Xoja Ahmad Yassaviyning inisi Ibrohim otaning o‘g‘li” ekanini qayd etadi. Shoir naslu nasab jihatidan Xoja Ahmad Yassaviyga yaqin va mashhur shayxlar – otalar avlodidan bo‘lgani u-n o‘ziga A. taxallusini tanlagan. Devonning birinchi va oxirgi sahifalarida ham “Shayxzoda Atoiy” degan so‘zlar uchraydi. Shoirning asl ismi esa hozirgacha noma’lum.

A. ma’lum muddat Balxda hukmronlik qilgan temuriy shahzodalardan mirzo Shohrux mirzoning o‘g‘li Muhammad Jo‘qiy, Ulug‘bek mirzoning o‘g‘li Abdullatif, Boysunqur mirzoning o‘g‘li Alouddavlalar hukmronligi paytida yashagan va ularning nomini devonida tilga olib o‘tgan. Ammo shoirning saroyda yoki Movarounnahrning qay bir o‘lkasida yashagani haqida aniq ma’lumot yo‘q.

N. “M.N.” va “M.L.” asarlarida A. nomini tilga olib, ijodiga yuqori baho beradi. U “M.N.”da A.ning Balxda yashagani, Ismoil ota farzandlaridan bo‘lgani, “darveshvash, xushxulq va munbasit (ochiq ko‘ngil, xushhol, xandon) kishi ekani, turkiy (o‘zbek) tilida ijod qilgani va she’rlari o‘z davrida “atrok (turklar) orasida ko‘b shuhrat” tutgani haqida gapiradi va uning ijodidan:

Ul sanamkim, suv yaqosinda paritek o‘lturur,
G‘oyati nozukligindin suv bila yutsa bo‘lur.

baytini misol keltirib, “qofiyasida aybg‘inasi borligini”, ammo “Mavlono ko‘p turkona (sodda, xalqona)” uslubda ijod qilishini ta’kidlab o‘tadi. N. bayt qofiyasidagi ayb sifatida “o‘lturur” va “bo‘lur” so‘zlarida kelgan raviy (“r” va “l”) harflarining mos kelmaganini nazarda tutgan.

A.ning 260 ta turkiy (o‘zbekcha) g‘azallardan tashkil topgan lirik merosining umumiy hajmi 1718 bayt (3436 misra)ni tashkil etib, 5 baytli g‘azallar 58 ta, 6 baytlilari 6 ta, 7 baytlisi 187 ta, 9 baytlisi 8 ta, 11 baytli g‘azal 1 tadir. A. lirik shoir sifatida g‘azallarini, asosan, ramal va hajaz bahrlarida yozgan. She’rlari ravon, tili sodda, uslubi yengil bo‘lgani u-n ham xalq orasida sevib o‘qilgan va yoyilgan. Devondagi g‘azallar diniy-tasavvufiy, oshiqona va ma’rifiy mavzularda bitilgan.

A. g‘azallaridan xalqona iboralar, maqol va matallar, qochirimlar, ertak mavzulariga oid so‘zlar keng o‘rin olgan. Shoir she’riyati o‘ziga xos, xalq tiliga yaqin, sodda, jozibador va murakkab tasvirlardan xoli. U ma’shuq jamolini, husn-u fazilatini ta’riflar ekan tabiiy hodisa va jarayonlarni kuzatib, ohorli tashbehlar qo‘llaydi, nozik muqoyasalar topishga muvaffaq bo‘ladi. Shoir xalq ichidagi afsona va ertaklar timsollarini she’riyatga olib kiradi. Voqea-hodisalar, kundalik tashvishlardan favqulodda poetik xulosalar chiqaradi. Hammaga tushunarli, ammo ifodasi har qanday o‘quvchini hayratga soladigan baytlar shoir g‘azallarida ko‘plab topiladi. Shoir tajnis, tajohuli orif, laff-u nashr, takror va tashbeh kabi badiiy tasvir vositalarining ajoyib namunalarini yaratgan.

N. A.ning “Qabri Balx navohisidadur”, – deydi.

Adabiyotshunos S.Rafiddinov “Atoiyning poetik mahorati” nomli nomzodlik ishi qilgan va A.ning to‘liq devonini arab yozuvi, so‘zboshi va izohlar b-n 2008-y. “Muharrir” nashriyotida chop ettirgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Самайлович Н. “Чагатайский поэт XV века Атаи”. Записки коллегии востоковедов II вып. 2. – Л., 1927; Яна қаранг: Фитрат. Ўзбек адабиёти намуналари. 1-том, – Т., 1926; Зариф Ҳ. Фозиллар фазилати. – Т., 1979; Рустамов Э. Узбекская поэзия в первой половине*

XV век, ИВЛ, – М., 1963; Рафиддинов С. Мажоз ва ҳақиқат. – Т., 1995; Давронов Н., Атойи. Ўзбек адабиёти тарихи. 5 томлик, 1-том. – Т., 1978; Рафиддинов С. Девони Шайхзода Атоий. – Т., 2008.

S.R.

ATORUD (Utorid) – Merkuriy sayyorasining Musulmon Sharqidagi nomi. Sharq mifologiyasida A. ijodkorlar, qalam ahllarining homiysi hisoblanadi. Bu tasavvur Sharq mumtoz adabiyotida ham o‘z aksini topgan. Badiiy adabiyotda u shoir va yozuvchilar homiysi sifatidagina emas, balki badiiy mahorat ramzi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Bu hol N. ijodi u-n ham xos. Buyuk shoirning dostonlari va lirikasida, nasriy asarlarida A. obraz, timsol sifatida keng qo‘llanganini ko‘rish mumkin.

Ma’lumki, “X.” tarkibidagi dostonlarda me’roj kechasi ta’rifiga bag‘ishlangan maxsus boblar mavjud. Bu boblarda N. bir qator osmon jismlarini tilga oladi, jumladan, ularda A.ga bag‘ishlangan baytlar ham keladi. “F.Sh.” dostonining me’roj tuniga bag‘ishlangan beshinchi bobida N. shunday yozadi:

Atorud bodpoyidin bo‘lub shod,
Berib avroq-u ajzosin borbod.

Tarj.: Uning (ya’ni, payg‘ambarning) bodpoyidin sevinib, varaqlari va yozganlarini barbod berdi. “S.S.” dostonining me’rojga bag‘ishlangan to‘rtinchi bobida payg‘ambar markabining avval oyga, so‘ngra A.ga yetgani quyidagicha tasvirlangan.

Markabi urdi oy yuziga tuvog‘,
O‘ylakim qoldi jabhasi uzra dog‘.
Chun Atoridqa barqdek surdi,
Xorayi sum xomasin sindurdi.

A. mumtoz adabiyotda mohir qalamkash, badiiy mahorat ramzi hisoblangan. N. bu timsoldan ham foydalangan va go‘zal misralar yaratgan. Jumladan, “F.Sh.”ning yakunlovchi, ellik to‘rtinchi bobida u o‘zining she’riyatda yuksak cho‘qqilarni zabt etgani haqida faxriya yo‘sinida quyidagi misralarni bitgan:

Menga chu fikrati xurshidsoya,
Bu oliy toram uzra berdi poya.

Ki gardun qal’asig‘a raxsh surdum,
Quyoshni gardi markabdin yoshurdim.

Kumaytim po‘ya chun g‘ardung‘a soldi.
Atorud kilk-u sanduqi usholdi.

N. “M.Q.”da ulkan san’atkorlarni pisand qilmaydigan xudpisandlarni fosh qilar ekan, u buni A. timsoli yordamida amalga oshiradi: “Muzahhibki, xitoyisi xatodur va farangisi qalam ahlining nangi, Atorudg‘a ta’n urmoqdur so‘zining rangi”.

A. obrazi N. g‘azaliyotida o‘zgacha bir mahorat b-n qo‘llaniladi:

Oncha faryod etti mutriblar Navoiy nazmidin,
Kim Atorud she’ridin charx uzra Noxid etmagay.

N.ning A. obrazi alohida o‘rin tutgan asari “H.” qasidasi hisoblanadi. Qasidada A. ishtirokida bo‘lgan mushoira epizodi mavjud. Unda A., muallif, bir parivash ishtirok etadilar va ularning nomidan matla’lar keltiriladi. Keyin mushoiraga shoh ham qo‘shiladi va badihada bir bayt aytadi.

N. “H.”da so‘z, qalam haqida vasflar bitar ekan, A. sayyorasi haqidagi mifologik qarashlarga ham ishora qilgan o‘rinlar uchraydi:

Raqam azmig‘a yo‘ng‘ach xoma boshin,
Atorud yig‘di sochilg‘on taroshin.

Hanuz etmay qalam yozmoqni odat,
Eshikdin kirdi iqbol-u saodat.

U gohida so‘z takroridan qochib, asarlarida A.ning Utorud, Dabir, Muftiyi gardun, Tiyr kabi ma’nodoshlarini ham mohirlik b-n qo‘llagan. Jumladan, “F.Sh.”dostonida Farhod o‘z ahvoliga o‘zi achinib, osmonning yetti qavatida joylashgan homiy yulduzlardan najot, duo tilar ekan, dastlab do‘stlar holini yozuvchi A., ya’ni Tir sayyorasiga yuzlanadi:

Solur erdi nazar ko‘klarga bir-bir -
Ki, nogoh ko‘zlariga uchradi Tir.

Dedi: k-ey do‘stlar holin raqamzan,
Sipehr avroqida doyim qalamzan.

Qarog‘im aylasang netgay siyohi,
Bitisang holatim sharhin kamohi.

Qachon nur ul quyosh tobidin olsang,
Qoshig‘a chirmabon nomamni solsang.

Ad.: *Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик, 3-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Низомий Ганжавий. Хусрав ва Ширин. – Теҳрон, 2005.*

Q.E.

ATOULLOH ASILIY – taxallusi; to‘liq ismi Amir Sayyid Jamoliddin Atoulloh ibn Sayyid G‘iyosiddin Fazlulloh ibn Sayyid Abdurahmon Husayniy Dashtakiy Asiliy (t.y. noma’lum, Sheroz – 1519 yoki 1523, Hirot) – muhaddis, mutasavvif, voiz. N. lutf-u marhamatidan bahramand bo‘lib, uning tarbiyati va homiyligida yetishgan olimlardan. Diniy va tasavvufiy ilmlarda tengsiz edi. Hadis tahqiqida hech kim uning oldiga tusholmagan. Sultoniya madrasasi va Ixlosiya xonaqohida mudarrislik qilib, keng va teran ilmini talabalarga ulashgan. Haftada bir marta Hirot Jome’ masjidida shahar ulug‘lari va akobirlari u-n va’z o‘qigan. Umrining oxirida xilvatga chekinib, toat-ibodat b-n shug‘ullangan. Shohlar-u hokimlar, amir-u amaldorlar uning suhbatiga yetish va xizmatiga musharraf bo‘lishni o‘zlariga sharaf deb bilganlar. Unga va muridlariga moddiy yordam ko‘rsatganlar. So‘z san’atining noyob durdonalaridan bo‘lgan N. iltimosi b-n yaratilgan “Ravzat ul-ahbob fi siyrat an-nabiy va-l-ol va-l-as’hob” (“Payg‘ambar, uning avlodlari va sahobalari to‘g‘risidagi do‘stlar gulshani”) kitobining shuhrati ko‘plab mamlakatlarga tarqalgan. Xondamirning “Xulosat ul-axbor” asarida yozishicha: “Daryodil amir Alisher odil podshoh Sulton Husayn hukmronligining boshlaridan to shu kungacha ulug‘ va baland martabali ul janob haqida ko‘p g‘amxo‘rliklar qildikim, uzoq va yaqin, turk-u tojik bundan hayrat barmog‘ini tishlab turmoqdalar...”.

Ad.: *Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985; Ғиёсиддин Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Т., 2015.*

E.O.

ATOULLOH HUSAYNIY (taxallusi; to‘liq ismi − Amir Burhoniddin Atoulloh Mahmud Husayniy Nishopuriy) (taxminan XV asrning 40-yy. Nishopur – 1513, Mashhad) – mashhur fors-tojik adabiyotshunosi, shoir. Yoshligida ilm tahsili u-n o‘sha davrning ilm va madaniyat markazi bo‘lgan Hirotga kelib, fors, arab tili va adabiyotini chuqur o‘rganadi, Jomiy va N.ning ilmiy-adabiy suhbatlaridan bahramand bo‘lib, kamolga yetadi. Sharq she’riyati masalalari b-n shug‘ullangan A.H. tez orada “adabiyot bilimdoni” sifatida taniladi, muammo san’atida o‘z davrining yagonasiga aylanadi. Ilmi bade’ bo‘yicha keng va chuqur bilimga egaligi tufayli N. e’tirofiga sazovor bo‘ladi. O‘z davrining fozil kishisi bo‘lgan A.H. Hirotning mashhur Ixlosiya, Sultoniya va boshqa madrasalarida dars bergan. Xondamirning ma’lumot berishicha, N. huzuridagi adabiy majlislarda ilmi bade’ga oid va’zlar o‘qiganda, ulug‘ shoirning o‘zi ham qo‘lida daftar b-n hozir bo‘lar ekan. N. unga davlat hisobidan maosh ajratgan va “jannatmisol” hovli in’om etgan. Hayoti va faoliyatini doim kuzatib borgan, o‘z huzuriga chorlab, adabiyotshunoslik masalalari bo‘yicha suhbatlar qurgan, badiiy san’atlarga doir asar yozishga da’vat qilgan, moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlagan. “Badoye’ us-sanoye’” (“Badiiy san’atlar”) asari ana shu da’vatlar natijasida vujudga kelgan (1493) va N.ga bag‘ishlangan. Shuningdek, uning “Risolayi qofiya” (“Qofiya haqida risola”) asari ham mavjud. Bu asarda “she’r san’atida va qofiya ilmida mohir olim” (Xondamir) o‘zigacha o‘tgan adabiyotshunoslarning fikrlarini umumlashtirgan

va rivojlantirgan. Ato, Atoiy, Atoulloh taxalluslari b-n she'rlar yozgan va ular turli adabiy manbalar va o'z asarlari orqali bizgacha yetib kelgan.

"Badoye' us-sanoye'" asari N.ning ham, boshqa zamona fozillarining ham e'tirof-u olqishiga sazovor bo'ladi. "M.N." tazkirasida N.: "Ma'lum emaskim, bu fanda hargiz hech kishi oncha jam' va mufid kitob bitmish bo'lg'ay", − deb unga yuksak baho bergan. Noziktab' va talabchan Bobur ham "xeyli yaxshi bitibdur" deb uni e'tirof etadi. Bu asari b-n A.H. Sharq mumtoz poetikasi rivojiga ulkan hissa qo'shdi. Asar adabiyot nazariyasi bo'yicha o'zigacha yaratilgan asarlarning qaymog'i bo'lgani u-n ham hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotgan emas − mumtoz she'riyatni aruz vazni va badiiy san'atlar jihatidan tekshirishda katta rol o'ynab kelmoqda.

Aruz ilmi va badiiy san'atlarga bag'ishlangan bu asar debocha, muqaddima, uch san'at va xotimadan iborat: debocha kitobning yozilish sababi, muqaddima ("Aruz ilmi usuli haqida") aruz vazni va zihoflari xususida bo'lib, 1-bobda 60 ta lafziy san'at, 2-bobda 63 ta ma'naviy san'at, 3-bobda 23 ta lafzi-yu ma'naviy san'at to'g'risida ma'lumot berilgan. Xotima ikki qismdan iborat: birinchisida ma'no b-n bog'liq ayblar, ya'ni she'r illatlari haqida fikr yuritilib, ikkinchi bobda 15 ta terminga izoh berilgan. A.H. san'atlarni lafziy, ma'naviy va lafzi-yu ma'naviyga ajratadiki, bu oldingi adabiyotshunoslar kitobida uchramas edi. U kitobda salaflari b-n bahs-u munozaraga kirishib, ularning yutuq va kamchiliklarini ham ko'rsatib boradi. Badiiy san'atlarga misol qilib, 50 ga yaqin shoir ijodidan namunalar berilgan, o'z ijodidan esa taxminan 700 bayt she'r keltirilgan. U aksar san'atlarga misol sifatida o'z baytlarini beradi. Boshqalarning she'rlaridan foydalanganda esa "Rudakiy deptur", "Manuchehr debtur", "Muizziy debtur" deb muallifini ko'rsatadi. Muallifi ko'rsatilmagan barcha misollar esa A.H.ning o'ziga tegishli. Bu misollar uning ijodiy salohiyati baland shoir bo'lganini ko'rsatadi. M-n, zulqavofiy san'atiga misol qilib keltirgan ruboiysi buning isbotidir:

Gar sa'd buvad tole'-yu axtar yorat,
Doro shavadat tobe'-yu purzar dorat.
V-ar z-on, ki nadori chu Atoyi tole',
Ganji tu buvad zoye-yu abtar korat.

Tarj.: Agar toleying qutlug'-u, baxt yoring, boylik tobeying bo'lib, uying oltin-kumushga to'la bo'lsa-da, Atoiydek peshonang sho'r bo'lsa, mol-mulking behuda-yu ishing bari bekordir.

XV asrgacha bo'lgan ilm-u bade'ga oid asarlarda 84 tadan ortiq san'at qayd etilmagan. Faqat Husayn Voiz Koshifiy 211 ta san'atni aniqlab, ulardan 110 tasini ilmiy muomalaga olib kirgan. A.H. kitobida 147 ta san'at berilgan va shundan 32 tasini olimning o'zi kashf etgan. U turli munosabat b-n asarda N. nomini tez-tez tilga oladi, unga atab yozgan she'rlarini ilova qiladi, shoir qalamiga mansub baytlardan misollar keltiradi. N. b-n o'zi o'rtasidagi munosabatlar haqida to'lqinlanib gapiradi. N.ning madrasa qurgani, Astrobodga hokim etib tayinlangani munosabati b-n yozgan muammolarini beradi.

A.H.ning hayoti va ijodini o'rganish, merosini nashr etishda tojik olimi R.Musulmonqulovning xizmatlari katta. U "Badoye' us-sanoye'"ning ilmiy-ommabop nashrini chop etish b-n birga (1974), "Atoulloh Mahmud Husayniy va fors-tojik she'riyati poetikasi masalalari" risolasini yaratadi. "Badoye'u-s-sanoye'"ni o'zbek tiliga Alibek Rustamov asliyatga mos holda mukammal tarjima qilib, sharh va izohlar b-n nashr ettirgan

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъ ус-санойиъ. – Т., 1981; Бобур. Бобурнома. – Т., 2002; Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Т., 1945; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988; Олимов С. Навоийшуноснинг шеършунос шогирди. – Т., 1990; Ҳайитметов А. Адабий меросимиз уфқлари. – Т., 1997; Ҳомидий Ҳ. Кўҳна Шарқ дарғалари. – Т., 1999; Очилов*

Э. Ҳусайний Атоуллоҳ // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 11-жилд. – Т., 2005.

E.O.

ATTOR ALOUDDIN (q.s.) – Muhammad ibn Muhammad al-Buxoriy (t.y.n., 1399). Bahouddin Naqshbandning xalifasi. A.A.ning nasabi xorazmlik mashhur Yassaviy shayxi Sayyid ota vositasida hazrati payg‘ambarga borib tutashadi.

A.A. Bahouddin Naqshbandga kuyov bo‘lgani aytilsa, ayrim manbalarda A.A. emas, uning o‘g‘li Hasan Attor kuyov bo‘lgani qayd etilgan. A.A.silsilayi sharifning o‘n yettinchi piri hisoblanadi. N.ning “N.M.” tazkirasida yozishicha, A.A.ning ismi Muhammad binni Muhammad Buxoriydir. Hazrat Bahouddinning eng yaqin suhbatdoshlaridan.

Alouddin, bir tomondan, madrasada tahsil olib, ikkinchi tomondan, xonaqohdagi suhbatlarga qatnashib, ma’naviy kamolot hosil qilar edi.

Alouddin Attor davlatmand otasining vafotidan keyin uning merosidan hech narsa olmaydi, zohidona hayot kechirishda davom etadi. Bahouddin Naqshband hazratlarining suhbatlarini tashkillashtirish, so‘zlarini jamlash, farmonlarini bajarish, sayyohatlarini idora etib, muridlarni boshqarishda yuksak qobiliyat sohibi edi. Bahouddin Naqshband hazratlari hayotlik paytidayoq unga ko‘p toliblarning tarbiyasini ishonib topshirgan va: “Alouddin bizning og‘irimizni yengil qildi, unda shubhasiz “tom va komil suratda” avliyolik alomatlari bilinmoqda”, degan ekan. A.A. madrasani tugatmasdanoq Naqshband sulukiga kirgan, bir umr piri yonida bo‘lgan.

Naqshbandning boshqa bir xalifasi – Xoja Muhammad Porso A.A. iltimosiga ko‘ra, “Risolayi qudsiya” (“Xoja Bahouddinning qudsiy kalimalari”) kitobini bitgan va unda A.A.ning o‘z piri haqidagi o‘nlab rivoyat va xotiralarini keltirgan. N. A.A.ning yaxshi suhbati natijasida ko‘p toliblar nuqsonlar poygohidan, Allohga yaqinlik darajasiga chiqqanlar va mukammal martabaga yetishganlar, deydi.

A.A. ustozi kabi hanafiy mazhabida bo‘lgan va bir muddat Xorazmda ham irshod ishlari b-n shug‘ullangan, Bahouddin Naqshbandning sayr-u sulukini davom ettirgan holda, unga yangi usullar ham ilova qilgan. U o‘zining yo‘nalishida muroqaba usuliga alohida e’tibor beradi. A.A. ning fikricha, muroqaba usuli nafy isbot usulidan afzal va jazbaga yanada yaqinroqdir. Muroqaba holiga ko‘nikma hosil qilgach, zehn doimo bir nuqtada jamlanadi va natijada ko‘ngillarni fath etish maqomiga erishiladi. A.A. bu usul orqali yuzaga kelgan jazba b-n toliblarni tezda qurbat maqomiga erishtirish mumkin, degan fikrni ilgari suradi. Shuningdek, u ustozi kabi suhbat usuliga katta ahamiyat berardi.

Vafotidan oldin A.A. yaqin xalifasi Ya’qub Charxiyga yaqindagilarni suhbat b-n, uzoqdagilarni esa kitob vositasida tarbiyalash lozimligini vasiyat qilib, irshod etish vazifasini topshiradi.

Alouddin Attor Hasan Attor (o‘g‘li), Nizomiddin Xomush, Ya’qub Charxiy, Husomiddin Porso Balxiy, Mavlono Abu Said, Abdulloh Imomiy Isfahoniy, Shayx Umar Motrudiy, Mavlono Ahmad Maska, Sayyid Sharif Jurjoniy kabi xalifalar yetishtirgan.

A.A.dan so‘ng sarhalqa silsilani uning xalifasi Mavlono Ya’qub Charxiy davom ettirgan

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Мирза Кенжабек. Буюк Термизийлар. – Т., 2017; Сайфиддин Сайфуллоҳ. Буюклар ҳалқаси. – Т., 2011.*

S.R.

AFV – *afv, afu, afuv* (arabcha), Alloh taoloning go‘zal ismlaridan bo‘lmish asmoyi husnadan biri, ya’ni A. qiluvchi hamda gunohdan o‘tish, kechirish, kechirim, uzr kabi lug‘aviy ma’nolarni va birini vazifasidan bo‘shatmoq, chetlashtirmoq singari ko‘chma ma’nolarni bildiradi. Tuzuklarda va didaktik xarakterdagi kitoblarda esa A. alohida falsafiy, diniy, axloqiy, siyosiy, huquqiy tushuncha, fazilat hamda hukmdorlar qoidasi, odati ekani maxsus bob, fasllarda sharhlangan. Shariatda esa A.ga jazo turlarini A. b-n almashtirish, intiqom olmaslik, uzrini qabul

qilish deb ta’rif berilgan. Ushbu ta’rif-u holatga N. ijodidan ko‘plab misollar keltirish mumkin. M-n, “M.N.” tazkirasining 7-majlisidagi Sohibqiron Amir Temurning o‘limga hukm qilingan Xoja Abdulqodirning jazosini A. b-n almashtirib, uni o‘ziga mulozim qilib olishi ila bog‘liq tarixiy voqea tasvirini eslash o‘rinli. Chunonchi: “...iltifot va tarbiyatlar qilib, o‘z oliy majlisida nadim va mulozim qildi. Idrok va fahm ahli bilurkim, yillar, balki qarnlarda mundoq latif so‘z voqe’ bo‘lmas”.

N.ning taklifi va homiyligida 1495-y.da yozilgan Husayn Voiz Koshifiyning “Axloqi Muhsiniy” nomli kitobiga diqqat qilsak. Temuriylar Uyg‘onish davrining mahsuli bo‘lmish mazkur nodir kitobida u odob-u axloqqa, siyosatga, huquqqa taalluqli qirqta atamaga, jumladan, A.ga ham alohida bob bag‘ishlagan. Asarning 16-bobi “Afv bayonida” deb nomlangan hamda mazkur bobda A. fazilati oyat, hadis, hikmat va ibratli rivoyat-u hikoyatlar asosida izohlab berilgan.

Doimo himmatli bo‘lgan N. “X.”da yozgan barcha hamd va na’tlari va “Munojot”larida A. mavzusiga alohida e’tibor qaratgan. Agar uning A.ni izohlagan, tushuntirgan baytlariga diqqat qilsak, an’anaviy ravishda ulusga Allohning afv-u baxshishi qiyomatgacha borligini aytib, keyin u Muhammad (s.a.v.) faoliyati b-n bog‘lab, o‘zining falsafiy, didaktik xarakterdagi qimmatli fikrlarini mahorat b-n bayon qilgan. Jumladan, bunday poetik bayonning betakror namunasini “S.I.”dagi “Munj.”ida ham o‘qiymiz. Me’roj voqeasini tasvirlar ekan, tasvirda Tangri taolo Muhammad (s.a.v.) vositasida ham bandalarning gunohini A. qilishini badiiy ifodalagan va afv-u karamli bo‘lishda ham payg‘ambar *makorim ul-axloq* sohibi ekanligini eslatib, uni vasf etib, Allohga “*vo ummato*” deb qilgan iltijolariga ishora qilgan.

N. “S.I.” dostonining XLIV bobini “Afv fazilatidakim...” deb nomlagan va mahorat b-n A.ni karam, baxshish kabi ma’nodosh so‘zlari b-n qo‘llab, 51 baytda badiiy talqin qilgan. N. ushbu bobni yozishni ma’naviy bir ehtiyoj deb bilganini, o‘z Iskandar (obraz)ining tasvirini A. etuvchi shoh sifatida ham go‘zal chizgilarda ko‘rsatishni istaganini sezish mumkin. Dostonning syujeti yakka qahramon shoh Iskandar obrazini ochishga qaratilgan bo‘lsa-da, N. mazkur bob sarlavhasida gunoh dastidan qo‘li boshda, oyog‘i loyda bo‘lgan *mujrimlar – aybdorlar, ovoralar* obrazlarini topib yaratganki, *mujrim, ovora* so‘zlarini otlashgan sifatda ishlatgan va shoh A.idan umidvor *ovoralarni* o‘quvchiga shunday tanishtiradi: “... hayrat zulumotidag‘i ovvoralarni karam sham’i rahnamoylig‘i bila ul vodiyi haloktin chiqarurlar va ul tiyraliktin alarg‘a hech bushmas”.

N. bob avvalidayoq qaysi shoh davlat boshqaruvida A., karam, baxshishni o‘ziga qoida qilib olsa, u shohlarning muhtarami, fardi, javonmardi deya alohida vasf qilgan.

Ulug‘ shoir o‘z davrining mashhur munaqqidi sifatida ham ba’zi ijodkorlarga baho berar ekan, hatto, ularning ijodida yoritilgan *A.* borasidagi fikrlari bayon etilgan baytlarga alohida e’tibor qaratgani, “yaxshi voqe’” deya e’tirof qilganini ko‘ramiz. M-n, “M.N.” tazkirasida ko‘p vaqtini “X.”ga tatabbu’ yozish b-n mashg‘ul bo‘lgan shoir Ashrafga bag‘ishlangan fiqrada uning *A.* haqidagi shohbaytini alohida tilga olgan

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Фарҳанги забони тожики. Жилд 1. – М., 1969; Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Т., 2006; Навоий асарлари луғати. – Т., 1972; Ferit Devellioğlu. Usmanlica-turkçe ansiklopedik lüğat. – Ankara, 1990; Ҳусайн Воиз Кошифий. Ахлоқи Мухсиний (Форс тилидан М.Ҳасаний, А.Ҳакимжоновлар таржимаси). – Т., 2010.*

B.R.

AFEREZIS – oldingi so‘zning so‘nggi tovushi ta’sirida keyingi so‘z boshidagi tovush tushib qolishi. N. ushbu lingvistik hodisadan foydalanib, *ne etayin* birikmasini *netayin* shaklida ishlatadi:

Shikeb uyni buzadur benavo ko‘ngul, netayin,
Xaroblig‘ qiladur mubtalo ko‘ngul, netayin

Quyidagi g‘azalda *naylayin* fe’li *ne aylayin* qo‘shilmasidan hosil bo‘lgan. Bu yerda ham aylayin so‘zida “a” tovushi tushib qolgan:

Yuz jafo eldin chekib bukim jafogarlikka ot,
El aro paydo qilibmen bu jafoni naylayin.

Mashhur:

Hunarni asrabon netkumdir oxir
Olib tufroqqamu ketgumdur oxir.

hikmatli so‘zida, *netkumdur* so‘zi *ne etkumdur* birikmasi qo‘shilmasidan hosil bo‘lgan. Bu misolda ham *yetkumdur* so‘zida *e* tushib qolgan. Ushbu so‘z *netkung* shakli ham uchraydi:

Ishq tig‘i gar Navoiy ko‘ksini chok ayladi,
O‘lmayin netkung durur, bir lahza ochil,
ey ko‘ngul.

Ad: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011.*

E.U.

AFZALOV Mansur Inoyatovich (1910–1973, Toshkent.) – f.f.n., folklorshunos olim. A.M.I.ning o‘zbek xalq dostonlari, ertaklarini to‘plash va nashr qilishdagi xizmatlari katta. Olimning “O‘zbek xalq ertaklari” haqida” (1964) nomli monografiyasi, “O‘zbek folkloridan namunalar” (1938), “Ergash Jumanbulbul ijodi” (1950) kitoblari e’lon qilingan. Xalq dostonlari va baxshilar, xalq ertaklariga doir maqolalari o‘zbek xalq og‘zaki ijodini to‘plash va ommalashtirish jarayoniga ulkan hissa bo‘lib qo‘shilgan.

A.M.I. faoliyati davomida N. haqidagi afsona, rivoyat, ertaklarni ham to‘plagan va ular haqida ilmiy maqolalar e’lon qilgan. A.A.Semyonov, P.Og‘oliyev, Berdi Kerboboyev, A.M.I. tomonidan to‘plangan N. haqidagi afsonalar “Dono Alisher” (Alisher Navoiy haqida xalq afsonalari, 1968) nomi b-n nashr etilgan. N. Mallayev “Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti” monografiyasining (1978; 2015) “Alisher Navoiy va xalq afsonalari” bo‘limida N. haqidagi folklor namunalarini shartli uchga bo‘lish mumkin deydi: fors-tojik tilidagi Buxoro afsonasi (А.Семёнов. Персидская новелла о Мир-Алишере Навои. 1926); turkman versiyalari (П.Огалыев. Мырали ве Солтансоюн, 1941, 1948; Б.Кербобоев. Эсерлар топлумы, дордунжи том. 1959) va o‘zbek tilidagi afsona va rivoyatlarni kiritadi. O‘zbek tilidagi versiyalari A.M.I. nashrga tayyorlagan “O‘zbek xalq ertaklari” (II jild, 1964), F.Abdullayev tayyorlagan Xorazm ertaklari (1961) va “Dono Alisher”ga kiritilgan. N.Mallayev turkman va o‘zbek versiyalarini qiyoslaydi va xalq variantlarini A.M.I. tasnifiga ko‘ra afsona, kitobiy asarlarni hikoya, deb atash ma’qulroq deydi.

A.M.I. folklor ma’lumotlari asosida “Farhod va Shirinning xalq varianti haqida” (1950) mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan. Dissertatsiyada “F.Sh.” syujetidagi Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lining “F.Sh.” xalq dostoni, Umar Boqiy yaratgan “Qissayi Farhod va Shirin”, XIX asrda Mahzun tomonidan yaratilgan “Qissayi Farhod va Shirin” syujeti, 1908-y. Mir Maxdum ibn Shohyunus nasriy bayon qilgan “Nasri Xamsayi benazir” tarkibidagi “Qissayi Farhod va Shirin”, xalq orasidagi Farhodning suv chiqarishi b-n bog‘liq ertak va afsonalar tahlilga tortilgan. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lining “Farhod va Shirin” xalq dostoni asos qilib olingan. Mazkur tadqiqot Fitratning “Farhod va Shirin” dostoni to‘g‘risida” (1930) nomli maqolasidan so‘ng dostonning xalq og‘zaki ijodida ishlanishi yuzasidan bajarilgan birinchi tadqiqotdir.

Ad: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Афзалов М. Навоий ҳақида халқ афсоналари // Шарқ юлдузи. 1948, 5-сон; Маллаев Н. Алишер Навоий ва халқ ижодиёти. – Т., 2015.*

B.M.



AFLOTUN – (Platonning sharqona nomi) (Asl ismi: Aristokl; mil. av. taxm. 427 – Afina – 347) – yunon faylasufi, platonizm asoschisi. Suqrot (Sokrat)ning shogirdi. Suqrot unga Platon (keng yelkali ma'nosida) nomini beradi. U yoshligidan taniqli faylasuflar suhbatidan bahramand bo'ladi, Heraklit, Demokrit, Parmenid asarlarini o'qib-o'rganadi. Mil. av. 380-yy. Afina yaqinidagi Akademiya nomli bir bog'ni sotib olib, shu yerda o'zining Platon akademiyasi deb atalgan falsafiy maktabini tashkil etadi. Akademiya deyarli 1000 yil faoliyat ko'rsatib, jumladan, unda Arastu (Aristotel) ham tahsil olgan. Akademiyada falsafadan tashqari, aniq va tabiiy fanlar ham o'qitilgan, lekin siyosiy ta'lim asosiy o'rin tutgan.

A. qarashlarida jamiyat va davlat to'g'risidagi qarashlar markaziy o'rinni egallaydi. Uningcha, jamiyat barcha a'zolarining qonunlarga bo'ysunishi ijtimoiy taraqqiyotning asosiy kafolatidir.

A.dan 30 ga yaqin katta-kichik asarlar saqlanib qolgan. "Davlat", "Qonunlar", "Siyosatdon", "Apologiya" (Suqrotni himoya qilish), "Menon" (notiqlik san'ati mohiyati haqida) va boshqalar shular jumlasidandir.

A. asarlari asrlar davomida G'arbdagina emas, Sharqda ham mashhur bo'lgan. Ibn Rushd uning "Davlat", Forobiy "Qonunlar" asarlariga sharhlar yozishgan. Forobiy sharhi "Talmis-u navomisi Aflotun" ("Aflotun qonunlari mohiyati") deb ataladi.

N. "T.A.H." asarida A.ni donishmandlar zumrasida zikr etib, uning Suqrotning shogirdi ekanligi, Dorob zamonida maydonga chiqib, Iskandarning suhbatdoshlari bo'lganligi haqida ma'lumot beradi. U ilohiy hakimlardan biri edi deb, hikmatlaridan namuna keltiradi. Jumladan, mamlakat va aholining nigohboni ekanligi jihatidan hukmdorning may ichishi harom ekanligi, chunki nigohbonning o'zi nigohbonga muhtoj bo'lishi yaxshi emas mazmunidagi hikmatini keltiradiki, bu b-n ulug' shoir Husayn Boyqaro va uning o'g'illariga ishora qilganini sezish qiyin emas.

A. Amir Xusrav Dehlaviyning "Oyinayi Iskandariy" dostonidayoq Iskandarning ustozlari qatorida tasvirlanadi. N.ning "S.I." dostonida esa u Iskandarning suhbatdoshlaridan biri bo'lib keladi. Hindiston yurishida Kashmir podshosi Mallu sehrgarlari sinoatini ochish yo'lini Iskandarga o'rgatadi. Falakni o'rganish u-n usturlob yasashda Suqrot b-n birga yuz nafar olimga rahbarlik qiladi.

"F.Sh." dostonida nochor xazinadagi sandiqdan Iskandar ko'zgusini o'g'li Farhodga olib ko'rsatar ekan, unga ta'rif bera turib Xoqon, jumladan, shunday ma'lumot beradi:

Ki, aylab to'rt yuz dono bilan jahd,
Alardin har bir Aflotung'a hamahd.

Hikmat ichra nuktayi mavzun bila,
So'z degay majlisda Aflotun bila.

N. A. obrazidan donishmand inson timsoli sifatida g'azallarida ham foydalanadi. M-n:

Ey hakim, etma jununum aybkim, ko'rgach ani
To'xtata olmas dimog'i ichra Aflotun xirad.

"L.M." dostonida esa:

O't solsa jahon eliga Majnun,
Bir kuyguchi bo'lg'usi Falotun, –

deb yozadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 7-жилд. – Т., 2004; Мамадалиева З., Сайфиддинова С. "Садди Искандарий"даги етти донишманд // Ўзбек тили ва адабиёти. 2015, № 3.*

E.O., M.A.

“AFORIZMLAR” – N. aforizmlaridan iborat to‘plam. 1-nashri 1941-y.da chop etilgan. Tuzuvchi Hodi Zarif.

To‘plamga ulug‘ shoirning “X.”, “M.Q.”, “M.” asarlaridan tanlab olingan 158 ta aforizm kiritilgan. To‘plamning “Lug‘at va izohlar” qismida 88 ta aforizmdagi ma’nolari anglanishi qiyin so‘zlar yoki aforizmning o‘zi to‘laligicha izohlangan. “A” to‘plami N. asarlaridagi hikmatlarni to‘plashdagi dastlabki tajribalardandir. Kitobcha kichik formatda 10 ming nusxada nashr etilgan.

B.M.

AFRANJ – **Q.: Farang**.

AFRIDUN – **Q.: Faridun**.

AFSAHZOD A’loxon (1935, Panjakent (Tojikiston) – 1999, Dushanbe) – tojik adabiyotshunosi, sharqshunos, matnshunos, munaqqid. F.f. d-ri (1987). Tojikistonda xizmat ko‘rsatgan fan xodimi (1995). Tojikiston davlat universitetini tugatgan (1961). 1961-y.dan Tojikiston FA Sharqshunoslik va qo‘lyozma meros institutida faoliyat ko‘rsatgan. 1971–1999-yy.da mazkur institutning Matnshunoslik bo‘limi mudiri bo‘lgan. A. sermahsul va serqirra olim bo‘lib, uning qalamiga 700 dan ziyod asar (monografiyalar, ilmiy risolalar, ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar va b.) mansub. Tadqiqot doirasi nihoyatda keng bo‘lib, fors-tojik mumtoz adabiyoti tarixi masalalari (“Hofiznoma” (1971); “Kamoli Xo‘jandiy” (1976); “Abdurahmoni Jomiy” (1978); “Fors-tojik adabiyoti XV asrning ikkinchi yarmida” (1985); “Odam ush-shuaro Rudakiy” (2000) va boshqa monografiyalari) b-n ham, hozirgi tojik adabiyoti (S.Ayniy, M.Tursunzoda, J.Ikromiy, G‘ani Abdullo, F.Ansoriy va boshqalar ijodiga bag‘ishlangan maqolalari) muammolari b-n birday shug‘ullangan.

A.A. Abdurahmon Jomiy hayoti va ijodini o‘rganish, asarlarini nashrga tayyorlash bo‘yicha ulkan va diqqatga sazovor ishlarni amalga oshirib, Sharq va G‘arb ilmiy jamoatchiligi orasida zabardast jomiyshunos sifatida tanildi va e’tirof etildi. “Abdurahmon Jomiyning hayoti va merosi” (1981), “Abdurahmoni Jomiy lirikasi” (M-n, 1985, rus tilida) monografiyalari va boshqalar shular jumlasidandir. U Jomiy “Kulliyot”i matnini 7 jildda Tehronda fors alifbosida chop ettirdi.

Mohir tarjimon sifatida J.J.Russo, J.M.Moler, A.N.Ostrovskiy, Tavfiq Hakim va boshqalarning qator dramalarini tojik tiliga tarjima qilgan.

N. hayoti va ijodini tadqiq etish A. tadqiqotlarining bir yo‘nalishini tashkil qiladi. “Ahd-u vafo (Jomiy va Navoiyning do‘stona munosabatlari)” (“Sadoyi Sharq”. –№ 8, 1968), “Navoiy” (Ensiklopediyayi adabiyot va san’ati tojik. Jild 2, 1989) maqolalari tojik o‘quvchilariga N. hayoti, shaxsi, faoliyati, ijodi, Jomiy b-n munosabatlari, fors-tojik so‘z san’atidagi ustozlari va izdoshlari haqida har tomonlama keng va chuqur ma’lumot bergan tadqiqotlar hisoblanadi. “Shoir ijodida Navoiy siymosi” (1989) maqolasi Jomiy asarlari, xususan, “Haft avrang” va “Bahoriston” asarlarida kelgan ulug‘ o‘zbek shoirining inson, ijodkor, davlat arbobi sifatidagi tasvir va ta’rifi hamda ustozining unga berilgan baholari tahliliga bag‘ishlangan. Jumladan, u o‘z maqolasida N. “X.”si o‘zi tatabbu’ qilingan “Xamsa”lardan kam emasligini isbotlab ko‘rsatadi. Tojik adabiyotshunoslari Jomiy “Yusuf va Zulayxo” dostonidagi Yusuf obrazida aslida Navoiy siymosini yaratganini kashf etganlarini asosli dalillar vositasida ochib beradi. Yusufning halolligi, to‘g‘riligi, ezgu fazilatlari b-n Misr Azizi darajasiga ko‘tarilishi ko‘p jihatdan N.ga o‘xshab ketadi va Jomiy Husayn Boyqaroning donishmand va xalqparvar vaziri N.ni ko‘z oldiga keltirib, Yusuf siymosini yaratgan deb yozadi u.

“Alisher Navoiy va tojik adabiyoti” nomli salmoqli maqolasi monografiya maqomida bo‘lib, olim unda mavjud materiallar asosida o‘zbek shoiri hayoti va ijodi hamda uning tojik adabiyotiga munosabati haqida tojik o‘quvchilariga keng ma’lumot beradi. Maqola “Sharhi hol”, “Adabiy merosi”, “Navoiyning tojik tilidagi asarlari”, “Navoiy va fors-tojik adabiyoti” kabi fasllarni o‘z

ichiga oladi. Unda muallif N.ning o‘zbek tilidagi ijodiga ham baho berishga harakat qiladi. Rudakiy, Firdavsiy, Xayyom, Nizomiy, Attor, Sa’diy, Jaloliddin Rumiy, Amir Xusrav Dehlaviy, Hasani Dehlaviy, Hofiz Sheroziy, Kamol Xo‘jandiy, Abdurahmon Jomiylar ijodi b-n qiyoslab, uning ijodi suv ichgan manbalarni ko‘rsatadi. U 1991-y.da Tojikistonda N. tavalludining 550 yilligi munosabati b-n turli tadbirlar, simpoziumlar tashkil etish va o‘tkazish ishlariga ham bosh-qosh bo‘lgan.

Ad.: *Пайванди қарнҳо. – Д., 1989; Аҳду вафо. – “Садои Шарқ”, 1968. № 8; Навоий. Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. – Душанбе, 1989. Осорномаи Аълохон Афсаҳзод. – Душанбе, 2005; Назрӣ Ч., Хуросонӣ М.А. Марди фозил // Садои мардум, 11.11.1995.*

H.H.

AFSONA (f.) – 1. Qissa, hikoya, doston, naql, sarguzasht; o‘tganlar hayoti b-n bog‘liq hikoya. 2. To‘qima, uydirma, safsata, yolg‘on-yashiq. 3. Majoziy: aql bovar qilmaydigan narsa, ish. 4. Majoziy: mashhur, shuhrat topgan, tilga tushgan, ovoza bo‘lgan, dong taratgan. 5. Adabiyotshunoslikda folklor janri avloddan avlodga, og‘izdan og‘izga o‘tib kelgan hikoyat, rivoyat; goh to‘qima, goh uydirma aralashgan, goh diniy mavzudagi kichik nasriy asar. N. “L.M.” asarida A. atamasini tilga olgan:

Yozmoqta bu ishqi jovidona,
Maqsudum emas edi fasona.

Mazmunig‘a bo‘ldi ruh mayli,
Afsona edi aning tufayli.

Ad.: *Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Фарҳанги забони тожики. Жилд 1. М. 1969; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Т., 1983; Бурҳони қотеъ. Жилд 1. – Душанбе, 1993; Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2006.*

E.O.

AFYUN (ar. – f.) – 1. Kayf beruvchi modda, ko‘knor o‘simligi ko‘sagining shirasi. Uni iste’mol qilgan kishi juda qisqa vaqt ichida bu moddaga bog‘lanib qolgan. O‘tmishda uning tobesi bo‘lgan afyunparastlar ko‘knori, bangi deb yuritilgan. 2. Maj.: Ishqi haqiqiyga tobelik. Ma’shuqa jamolining partavidan sarxushlik tuyish ramzi. N. she’riyatida istifoda etilgan poetik obraz.

Mumtoz adabiyotda kayf va sarxushlik beruvchi moddalar, asosan, may va unga aloqador obrazlar b-n birgalikda keltiriladi. Bundan maqsad ma’shuqaning ishqidan sarxushlik, maxmurlikdir. N. she’riyatida A. may, ya’ni haqiqiy ishqning ta’sir kuchini oshiruvchi, may ichuvchi – rindga ma’naviy zavq-u shavq bag‘ishlovchi timsol bo‘lishi b-n birga, shoir fikr-qarashlarini yuzaga chiqaruvchi badiiy vosita hamdir.

Mayg‘a afyun solib, ey dard-u balo soqiylari,
Turfa bukim, mast bo‘ldung deb
meni yozg‘urdunguz.

Maz.: Ey dard-u balo soqiylari, jomimdagi mayga A. aralashtirib, o‘zingiz meni mast bo‘lding deb ayblashingiz g‘alati.

Quyidagi baytda esa A. mayparast – rindga o‘zligidan xabar beruvchi, uni hushyor qiluvchi badiy timsoldir:

Bodayi ishq asru mast etmish meni, ey do‘stlar,
Jomima afyun ezib bir dam xiradmand aylangiz.

Maz.: Do‘stlar, ishq bodasi meni juda mast qildi, jomimdagi mayga A., ya’ni kayf beruvchi modda qo‘shib, xiradmand – aql sohibi aylang.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Iskandar Pala. Mumtoz she’riyat qomusiy so‘zligi. – Istanbul, 2004.*

M.A.

AFG‘ONISTONDA NAVOIYSHUNOSLIK – Afg‘onistonning shimoliy qismida o‘zbeklar yashab kelmoqda. Ular N. ijodiga hudud nuqtayi nazaridan ham yaqin bo‘lib, bu o‘lkada

N. b-n bog‘liq ko‘plab obidalar mavjud. Ushbu hudud xalqi orasida N.ga ergashib she’r yozish ayni zaminda azaldan mavjud. Afg‘oniston n.shunosligi keyingi salkam bir asr mobaynida alohida yo‘nalishga aylana boshlagan va ayni yo‘nalishda olimlar, shoirlar faoliyat olib boradilar.

N. hayoti va ijodi b-n o‘ziga o‘chmas ma’naviy haykal qo‘yib keta olgan mutafakkirdir. Afsuski, hozirgi kundagi Afg‘oniston mamlakati haqida gapirganimizda siyosiy, madaniy va ma’naviy masalalardagi ko‘plab nizo va muammolar ko‘z oldimizga keladi. Biroq hammavaqt ham shunday bo‘lib kelgan emas. N. yashagan davr – XV asrdan so‘nggi yillarga qadar Afg‘oniston zaminidagi N.ga bo‘lgan munosabat va uning Afg‘oniston o‘zbeklari va Sharq ma’naviy hayotidagi o‘rni katta bo‘lib kelgan. Afg‘oniston o‘zbeklari va ularning tarixi haqida muayyan nashrlar amalga oshirilgan. Afg‘onistondagi n.shunoslik tarixi va nashrlari salmog‘i katta miqdorni tashkil etmasa-da, muayyan ishlar amalga oshirilgan.

Navoiy qurdirgan obidalar. N.ning Afg‘onistondagi izlarini, avvalo, u qurdirgan yoki vujudga kelishiga aloqador obidalardan izlash va ular bo‘yicha tadqiqotlar olib borish kerak bo‘ladi. Mazkur yo‘nalishda ba’zi tadqiqotlar mavjud, ammo ularni hali davom ettirish lozim. Bunday inshootlar Afg‘oniston, hatto, hozirgi Eron sarhadlarida ham mavjud. Shu ma’noda temuriylar davri me’morchiligi N. nomi b-n chambarchas bog‘liq.

Bunday yodgorliklar Hirot, Balx, Mashhad yoki Xurosonning boshqa hududlarida mavjud bo‘lib, barchasi birdek e’tiborga molik. Olimlarning fikricha, aslida N. 1001 ta obida qurishni niyat qilgan, lekin hozirgacha turli manbalarda 366 tadan ko‘proq yodgorlik nomi tilga olinadi. Shu jumladan, ayrim manbalarda faqat 15–20 obidaning nomi keltirilgan, xolos. Afg‘onistonlik n.shunos Amin Hiraviy fikricha, N. harakatlari asosida Xurosonning sahro va dashtlari, shahar-u qishloqlarida bunyod etilgan masjid, madrasa, karvonsaroy, bog‘, hovuz hamda ko‘priklar sonini qayd etish va tasvirlash murakkab bir ish. N. tashabbusi va ishtiroki asosida qurilgan yodgorliklardan eng mashhuri Balx viloyatining Mozori Sharif shahridagi Hazrat Ali (r.a.) maqbarasi (ziyoratgohi) bo‘ladi. Hazrati Aliga nisbat beriladigan bu maqbara majmuasi xalq orasida “Ravzah” yoki “Ali ziyoratgohi” deb ham ataladi. Ushbu majmua texnik va qurilish nuqtayi nazaridan turli imkoniyatlarga ega bo‘lib, unda 21 ta hujra, 8 darvozali bog‘, 5 eshikli hovli, shuningdek, madrasa, kutubxona, tahoratxona, masjid va muzey mavjud. Afg‘oniston hududida salkam yarim asrdan beri davom etib kelayotgan notinchlik bu mamlakatda erkin ilmiy faoliyat olib borish imkoniyatini cheklamoqda. N.ga aloqador obidalarni o‘rganish imkoniyati nisbatan afg‘onistonlik olimlar zimmasida turibdi.

Afg‘oniston navoiyshunoslari. Ma’lumki, N. hozirgi Afg‘oniston hududida joylashgan qadimgi Hirot shahrida dunyoga keldi, shu yerda voyaga yetdi, ijod etdi. Dunyodan ko‘z yumganidan so‘ng shu yerga dafn etildi. Tili va o‘zi o‘zbekniki, tafakkuri olamniki bo‘lgan Hirot uyg‘onish davrining eng taniqli vakillaridan biri bo‘lgan N. o‘z yurtida muayyan darajada o‘rganib kelinadi. Gap shundaki, N. hirotlik bo‘lishiga qaramay, aksariyat n.shunoslar o‘zbekistonlik. Afg‘onistonda N.ni o‘rganish yoxud n.shunoslik uzoq tarixga ega emas. Matbuotda N. ismi ilk bor 1950-yy.dan keltirila boshlandi. Unga qadar N. asarlarining eski yozuvdagi nusxalari faqatgina xonadonlarda va uy maktablaridagina o‘qilgan. Ayrim shoirlar tomonidan N. g‘azallariga yozilgan muxammaslar yoxud boshqa ko‘rinishdagi she’rlar yaratilgan bo‘lsa-da, nashr bo‘lmagan. Aslida Afg‘oniston tarixida o‘zbek tilida chop etilgan birinchi asar bu Husayniy taxallusi b-n she’r yozgan Temuriy hukmdor Sulton Husayn Boyqaro (1469–1506)ning she’riy devonidir. Afg‘onistonda birinchi bosmaxona 1869-y. shoh Amir Sheralixon davrida tashkil topgan. Husayniy devoni ayni bosmaxona tashkil etilganidan 94 yil o‘tib, 1963-y. nashr qilingan. N. hayoti va ijodiga bag‘ishlangan dastlabki to‘plam 1967-y. Afg‘onistonda nashr qilingan.

1978-y. so‘lchilar tomonidan Afg‘onistonda sodir etilgan inqilobdan keyin o‘zbekcha yozuvdagi matnlarni nashr qilishga kengroq yo‘l ochildi.

Umuman olganda, ana shu 1960-yy.dan boshlab afg‘onistonlik olimlar n.shunoslikka

bugungi kunga qadar o‘ziga xos hissa qo‘shib kelmoqdalar. Bular qatorida Muhammad Ya’qub Vohidiy Juzjoniy, Abdulhakim Shar’iy Juzjoniy, Abdulhay Habibiy, Abdulloh Korgar, Abdullo Ruin, Said Muhammad Olim Labib, Said Tojuddin Toshqin Bahoiy, Nurulla Oltoy kabilarning nomini qayd etish va mazkur ro‘yxatni davom ettirish mumkin. Bu mamlakat n.shunosligining bosh xususiyatlaridan biri – mazkur olimlarning eski o‘zbek yozuvi va dariy tili, arab yozuviga butun umr davomida ta’lim va kundalik foydalanishda yaqinliklaridir. Ya’ni, N. davridan beri davom etib kelayotgan eski o‘zbek tilining matn va so‘zlashuv an’anasining Afg‘onistonda saqlanganligi bu yurt n.shunoslarini N.ga, m-n, arab yozuvidagi N. asarlari qo‘lyozmalariga har jihatdan yaqinlashtiradi.

Shu o‘rinda yuqorida tilga olingan afg‘onistonlik n.shunos olimlaridan ayrimlarining hayoti va ijodi haqida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz:

1) Abdulhay Habibiy 1910-y. Afg‘onistonning Qandahor shahrida tug‘ilgan. U ko‘plab kitoblar muallifi, 1950-yy.da “Ozod Afg‘oniston” nomli jurnal noshiri bo‘lgan. 1966-y.da Afg‘oniston Tarix Jamiyati boshlig‘i sifatida faoliyat olib borib, Afg‘oniston tarixiga oid bir qancha kitoblar nashr qilgan. Abdulhay Habibiy 1981-y. “Amir Alisher Navoiyning siyosiy va fikriy qarashlari” nomli kitobni nashr etgan.

2) Mir Husayn Shoh 1925-y. Qandahorda dunyoga kelgan afg‘onistonlik olim 1967-y. akad. Bartoldning N.ga bag‘ishlangan monografiyasini ingliz tilidan fors tiliga tarjima qilgan. Adabiyotshunos va tarixchi olim o‘z sohasi bo‘yicha o‘nlab asarlar yaratgan va tarjima qilgan. Ulardan biri “Alisher Navoiy hayoti” nomli kitobdir. 1971-y. Kobulda chiqadigan “Juvandun” jurnalida O‘zbekiston adibi Oybekning “Navoiy” romani chop etildi. Ushbu romanning bir parchasi “Alisherning yoshligi” nomi b-n 1979-y. o‘zbek tilida Kobulda bosiladigan “Yulduz” gazetasida eski o‘zbek yozuvida chop qilindi. Mazkur ro‘yxatni davom ettirish mumkin.

3) Muhammad Yoqub Vohidiy 1932-y. Saripul viloyatida tug‘ilgan. 1967-y. tadqiqotchi afg‘onistonlik olim birinchilardan bo‘lib buyuk shoir N. hayoti va ijodi haqidagi kitobni nashr ettirgan edi. Muhammad Yoqub Vohidiy 1961-y. Kobul universitetining adabiyot fakultetini bitirgan. Adabiyot, tarix va geografiya fanlari bo‘yicha o‘qituvchilik qilgan. U yigirmaga yaqin kitoblar muallifi, jumladan, N.ning “M.L.”, “V.”, “M.A.” kabi asarlarini tadqiq qilib, ularning qiyosiy matnlarini qayta nashr etishga muvaffaq bo‘lgan.

4) Abdulloh Ro‘yin Tojikiston b-n chegaradosh Afg‘onistonning Qunduz viloyatida 1955-y. dunyoga kelgan. U ko‘p yillik tinimsiz faoliyati natijasida 2014-y.ga qadar N. asarlaridan yigirma uchtasini eski o‘zbek yozuvda nashr etishga muvaffaq bo‘ldi. Abdulloh Ro‘yin Afg‘onistonda N. asarlarini qayta nashr etish ustida eng ko‘p ish olib borgan tadqiqotchi hisoblanadi.

5) Sayid Tojuddin Toshqin Bahoiy 1961-y. Foryob viloyati markazi Maymana shahrida tug‘ilgan. 1986-y. Kobul universitetiga kirib, o‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha tahsil oladi. Uning bir hikoyasi, “Suvloq” va “Bir siqim tuproq” she’riy to‘plamlari nashr etilgan. N. haqida qator maqolalar yozgan hamda “X.” va “M.L.” asarlarini qayta chop etgan qalamkashdir.

Navoiy asarlari nashrlari va tadqiqi. O‘zbekistonda 1968-y. N. tavalludining 525 yilligi nishonlangan edi. Afg‘onistonda ham shu davrdan boshlab n.shunoslik jonlandi. N.ga oid tadqiqotlar dariy va o‘zbek tillarida chop etila boshlandi. Ayniqsa, N. asarlari nashriga katta e’tibor qaratildi. N.ni anglash uning asarlarini chuqur bilish orqali amalga oshirilishi hammaga ayon.

“Oriyona” jurnalining 1945-y. 1-sonida Fikriy Saljuqiyning “Amir Alisher Navoiy” nomli maqolasi bosilib chiqdi. Oradan bir yil o‘tib ayni jurnalning 2-sonida bulg‘oristonlik sharqshunos Domosiyo Petruskuerovning “Buyuk mumtoz shoir Mir Alisher Navoiy” nomli maqolasi e’lon qilindi.

Yana shu “Oriyona” jurnalining 1966-y.gi 1-2-sonlarida N. ijodiga taalluqli bo‘lgan bir katta maqola bosildi. Ushbu maqola muallifi Muhammad Yoqub Vohidiydir. Maqola “Arba’in”i Jomiy” va “Arbain”i “Navoiy” deb ataladi. Vohidiy

avval Jomiy va N.ning “Arbain”lari to‘g‘risida o‘z fikrlarini qisqacha bayon qilib, so‘ngra birin-ketin ikkala “A.” ning ham matnlarini keltiradi.

1967-y. Afg‘onistonda N. tug‘ilganiga 525 y. to‘lishi munosabati b-n Afg‘oniston tarix anjumani tomonidan bir ilmiy to‘plam nashrga qilingan. Kitobda pushtu va dariy tilidagi maqolalar keltirilishi mo‘ljallangan bo‘lib, ayni kitob “Amir Nizomiddin Alisher Navoiy Foniyning tug‘ilganiga 525 yil to‘lishi munosabati bilan” (“Ba munosabati 525 soli valodati Amir Nizomiddin Alisher Navoiy Foniy”) deb nomlangan. Kitobni Muhammad Yoqub Vohidiy nashrga tayyorlagan, deb xabar beriladi. Darhaqiqat, mazkur kitob 1968-y. ayni nom b-n Kobulda nashr etiladi. Yuqorida tilga olganimiz Orif Usmonov maqolasining davomida Habibiy mazkur to‘plamdan o‘rin olgan maqolalar b-n o‘quvchilarni tanishtirgan.

1971-y. Kobulda chiqadigan “Juvandun” jurnalida o‘zbek adibi Oybekning “Navoiy” romanidan parcha va roman haqidagi maqola chop etildi. So‘ng ayni romanning bir parchasi 1979-y. “Alisherning yoshligi” nomi b-n o‘zbek tilida Kobulda bosiladigan “Yulduz” gazetasida eski o‘zbek yozuvida nashr etildi.

Afg‘onistondagi n.shunoslik mevalarini ko‘rish u-n o‘zbek tilidagi minbar kerak. Shunday joy sifatida bu mamlakatda 1978–2021-yy. o‘zbek tilida nashr etilgan “Yulduz” gazetasini ko‘rish mumkin. Garchi uning nashri muntazam amalga oshirilmagan bo‘lsa-da, “Yulduz” Afg‘oniston o‘zbeklarining ma’naviy va madaniy qiyofasi bo‘lib kelgan. Mazkur gazetada N. haqida o‘nlab ilmiy-tadqiqiy maqolalar nashr etilgan. U 1991-y. Kobulda tashkil etilgan “Amir Alisher Navoiy madaniy anjumani”ning rasmiy nashriga aylangan. Shu munosabat b-n N.ning, deyarli, barcha asarlari va ularga oid tadqiqotlar ushbu gazeta orqali kitobxonlar qo‘liga yetib boradigan bo‘ldi.

1980-yy. boshidan N. asarlari har safar 1000 ta nusxadan kam bo‘lmagan adadda nashr qilina boshlandi. Shoirning “X.”, “X.M.” va boshqa barcha asarlariga bugungi Afg‘oniston kitobxoni oshno bo‘lib kelmoqda. Noshirlik faoliyatida afg‘onistonlik n.shunos Abdulla Ruin peshqamdamlik qildi. U 2008–2017-yy. davomida o‘zi va farzandlarini N. asarlarini eski o‘zbek tilida nashr qilish ishiga jalb etib, o‘ndan ortiq marotaba N. asarlarini 1000 tadan nusxada chop ettirdi. Boshqa n.shunoslar ham N. asarlarining nashr ishlariga o‘zlarining hissalarini qo‘shdilar. “Oriyona” jurnalining 1981-y. 35-36-sonlarida esa Muhammad Umar Alim Bayotning “Ulug‘ shoir va mutafakkir Mir Alisher Navoiy” maqolasi bosilib chiqdi. Bu maqolada N. asarlaridagi adolatparvarlik, insonparvarlik, do‘stlik va muhabbat g‘oyalari keng sharhlab berilgan. N.ning ijodi afg‘onistonlik shoirlar u-n she’riyat sirlarini o‘rganish maktabiga aylangan.

1991-y. N. tavalludiga 550 yil to‘lishi munosabati b-n Afg‘onistonda dariy tilida nashr qilinuvchi “Hivod” (“Vatan”) gazetasining 1991-y. yanvar-fevral sonlarida N.ga bag‘ishlangan maqolalar chop etildi. M-n, gazeta 1991-y. 17-yanvar (1369 hijriy-shamsiy, 27 jadiy) kuni “Amir Nizomiddin Alisher Navoiy tavalludining besh yuz ellik yilligini nishonlash” rukni ostida yirik afg‘on tadqiqotchisi Abdulhakim Shar’iy Juzjoniyning “Alisher Navoiy – yangi adabiy maktabning asoschisi” maqolasining birinchi qismini e’lon qilgandi. “Hivod” gazetasining 9-fevral (1369 hijriy-shamsiy, 21 dalv) soni to‘lig‘icha N.ga bag‘ishlandi.

Navoiy – shoirlar yurti farzandi. Afg‘onistonning bir xususiyati bor. Bu o‘lkada N. davri an’analari hozirga qadar davom etadi. Yosh-u qari hamma she’r yozadi yoki yoddan ko‘p she’r biladi. O‘z nutqini she’r b-n bezaydi, fikrini Sharq mumtoz adabiyoti vakili qarashlari, she’rlaridan parcha keltirish b-n asoslashga o‘rgangan. Chunki Afg‘oniston maktablaridagi ta’lim sistemasida, o‘rta asr musulmon Sharqida bo‘lganidek, she’rning o‘rni katta. Shu bois bu yurt shoirlari she’r yozadi, she’r yozar ekan, N.ga o‘xshashga intiladi. N. she’rlariga nazira bog‘laydi, ergashadi. Buning natijasi o‘laroq, Afg‘onistondagi o‘zbek ziyolilari N.ni ko‘p va xo‘b yodlaydi. Mana shunday N. yo‘lidan ketgan shoirlar qatorida Domla Bedil, Muhammad Olim Labib, Mir Muhammad Amin Qurbat, Muhammad Amin Matin

Andxuyi, Muhammad Yahyo Hafiziy Juzjoniy, Zikrilla Ishonch, G‘ulomsaxiy Vakilzoda kabilarni eslash mumkin. Afg‘onistonlik o‘zbek shoirlarining N. she’rlariga muxammaslari, javoblari va ergashib yozilgan she’rlarining o‘zinigina to‘plasa, bitta katta kitob bo‘la oladi.

1982-y. Afg‘onistonning Kobul shahrida afg‘onistonlik shoirlar tomonidan n.xonlik – N. she’rlarini o‘qish va ularga ergashish yig‘ini bo‘lib o‘tadi. N.ning ijodi afg‘on shoirlari u-n she’riyat sirlarini o‘rganish maktabiga aylangan. Afg‘onistonda ijod qilayotgan o‘zbek shoirlari klassik an’anaga ko‘ra ko‘proq aruz vaznida she’r yozadilar va N.ga ergashib, uning asarlariga muxammaslar bog‘laydilar. Ular orasida Qori Sharafuddin tomonidan N.ning “Tuz” radifli g‘azaliga, Muhammad Amin Uchqun tomonidan “Hargiz” radifli g‘azaliga bog‘langan muxammasalarini ko‘rsatish mumkin.

Afg‘onistonda ko‘plab o‘zbek shoirlari mavjud va ular N. she’rlariga ergashib naziralar, N. g‘azallariga muxammaslar yozishgan. M-n, shunday shoirlardan biri – Sayyid Muhammad Olim Labib. Bu shoir 1957-y. Afg‘onistonning Foryob viloyatida dunyoga keldi. 1976-y. Kobul universitetiga o‘qishga kirdi, so‘ngra 1984-y. Rossiyada o‘qishni yakunlab, adabiyotshunoslik sohasida filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasiga erishdi. Olim Labib o‘zbek va dariy tillarida ijod qiladi. Shoirning o‘zbek tilida “So‘z injulari” va “Tuyg‘ularim, qayg‘ularim” va fors tilida “Ikki ko‘zguda bir tasvir” (“Yak tasvir dar du oyina”) to‘plamlari chop etilgan. Muhammad Olim Labib N.ga bag‘ishlangan qator maqolalar muallifi, N. g‘azallariga o‘nlab muxammas va naziralar yozgan shoirdir. Muhammad Olim Labibning N.ning quyidagi matla’siga nazira tarzida bitgan g‘azali quyidagicha boshlanadi:

Eyki avval qomating vasfini shamshod ayladim,
Sarvi jannat bo‘lki, emdi seni ozod ayladim.

Navoiy konferensiyalari. Ayni vaqtda, Afg‘onistondagi N. b-n bog‘liq yuksak minbar sifatida shoir tavalludiga bag‘ishlab, davlat miqyosida o‘tkaziladigan xalqaro konferensiyalarni qayd etish mumkin bo‘ladi. Garchi bunday konferensiyalar soni ko‘p bo‘lmasa-da, Afg‘oniston n.shunosligi u-n ularning ahamiyati katta. Dastlab, 1967-y. 7-fevral kuni Hirot shahrida Afg‘oniston podshohi Muhammad Zohir Shoh (1933–1973) buyrug‘i va Afg‘oniston Axborot va Madaniyat vaziri Muhammad Usmon Sidqiy tashabbuslari b-n Hirot shahrida N. qabriga marmar tosh qo‘yilgan. Marmar tosh Kobulda maxsus ishlangan bo‘lib, uning ustiga Xondamirning N. to‘g‘risidagi mashhur bir qit’asi bitilgan edi. O‘sha fevral kuni N. qabri atrofiga Hirot aholisi, shoirlar, olimlar va N. muxlislari to‘planishgan. Marosimni Hirot shahri voliysi Muhammad Sidiq qisqa nutq b-n ochgan. So‘ng Afg‘onistonning mashhur tarixchi va adabiyotshunos olimi Fikriy Saljuqiy b-n Muhammad A’lam G‘avvos N.ning hayoti va ijodi to‘g‘risida ma’ruzalar qilganlar. N. qabriga marmar tosh qo‘yish marosimi haqidagi xabar Kobul radiosi orqali pushtu, fors (dariy), arab, urdu, baluj, rus, ingliz, nemis va fransuz tillarida o‘qib eshittirilgan va Afg‘oniston markaziy gazetalarida e’lon qilingan.

Ulardan birinchisi Kobulda 1991-y. N. tavalludining 550 yilligiga bag‘ishlangan tadbir bo‘ldi. Unda yigirmadan ortiq ma’uruzalar o‘qildi. Ammo afsuski bu maqolalar to‘plam shaklida nashr yuzini ko‘rolmadi.

Ikkinchi xalqaro anjuman b-n birinchisi o‘rtasidagi davr 25 yilni o‘z ichiga oldi. Nihoyat, 2016-y. mutafakkir tavalludining 575 yilligiga bag‘ishlangan xalqaro simpozium poytaxt Kobul, Mozori Sharif va Hirot shaharlarida bo‘lib o‘tdi.

N. tavalludining 580 yillik yubileyi Hirotda xalqaro miqyosda keng nishonlandi. Anjuman “Alisher Navoiy tafakkur olamini o‘rganish” nomi ostida 2021-y. 7-9-aprel kunlari o‘tkazildi. Anjumanning aynan shu nom ostida o‘tkazilishiga Afg‘oniston Prezidenti b-n seminarga oid bir muloqotda olg‘a surilgan bir fikr sabab bo‘ldi. Unda Prezident “Alisher Navoiy bizning Shekspirimiz”, shunga yarasha uning yubileyini nishonlashimiz kerak, deb komissiya a’zolariga ta’kidladi. Bu fikr ilmiy qo‘mitada muhokama etilib, nihoyat, anjumanga “Alisher Navoiy tafakkur olamini o‘rganish” nomi qo‘yildi. Ayni

konferensiyada olti davlatdan n.shunos olimlar qatnashdi. O‘zbekistonlik n.shunos olimlar ishtiroki salmoqli bo‘ldi. Ular O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning tabrik so‘zlari o‘rin olgan, Toshkentda nashr etilgan, 5 jilddan iborat eski o‘zbek yozuvida hozirlangan N.ning “X.” kitobini o‘zlari b-n olib borib, O‘zbekiston Respublikasining sovg‘asi sifatida taqdim etishdi.

“Alisher Navoiy tafakkur olamini o‘rganish” nomi ostiga tashkil etilgan xalqaro seminar munosabati b-n 2021-y. “Ozodiy” davlat nashriyotida nashr etilgan. Ushbu “Maqolalar to‘plami”-dan 48 ta maqola o‘rin oldi. Xullas, Afg‘onistonda N. b-n bog‘liq ilmiy va amaliy ishlar keyingi yarim asrda keng miqyosda amalga oshirilib kelinmoqda.

Ad.: *Azizulloh Arol. “Alisher Navoiy bilan bog‘liq Afg‘onistonda nashr qilingan kitoblar” // “Alisher Navoiy va XXI asr” mavzusidagi uslararo konferansi materiallari. Toshkent – Boku, 2023; Азизуллаҳ Арал. Навоий ўзига қўйган ҳайкални бузиб бўлмас ёхуд Афғонистондаги навоийшунослик тарихи // “Марказий Осиё ренессанси” журнали. – Т., 2023.*

Az.A.

AXIY (ar.) – Sharq adabiyotida mashhur badiiy obraz. N.ning “S.S.” dostonidagi avvalgi iqlim yo‘lidan kelgan musofir hikoyasining qahramonlaridan biri.

Ko‘ngli behad rahim-u tab’i saxiy,
Shahr-u xalqi ichinda oti Axiy.

Hind shahzodasi Farrux va A. sarguzashtlari orqali hikoyada oliyjanoblik, do‘stga sadoqat, pok muhabbat g‘oyalari, javonmardlik talab-qoidalari ulug‘lanadi. Unda hikoya qilinishicha, Hind shahzodasi Farrux tushida bir sohibjamolni ko‘rib, unga oshiqi beqaror bo‘lib qoladi va uni izlab, safarga chiqadi. U sevib qolgan go‘zal halablik A. degan mard-u saxiy kishining xotini bo‘lib chiqadi. Uning ishq dardida vatanini tark etib, toj-u taxtdan voz kechib kelgani va holi o‘lar darajaga yetganini ko‘rgan A. bechoraning uvoliga qolmay deb, xotini Gulchehraga hammasini tushuntiradi va uni taloq qilib, Farruxga nikohlab beradi hamda behisob mol-u dunyo va xizmatkorlar b-n uni yurtiga jo‘natadi. Chunki “L.M.” dostonidagi Navfal kabi:

Xoja dog‘i bor edi g‘am ko‘rgan,
Ishq bedodidin sitam ko‘rgan.

Lekin yo‘lda Gulchehraning xafa va ma’yusligidan gap nimadaligini bilgan Farrux A.ning beqiyos himmatiga qoyil qoladi va:

Gar anga bu qadar muruvvat bor,
Bizda ham shammaye futuvvat bor –

deb ayolni yupatadi va o‘ziga singil bo‘lib qolishini taklif etadi.

Taqdirning gardishi b-n xotini va do‘stidan ajralgan A. mansabi va mavqeyidan, mol-u mulkidan ajralib, Farruxning ahvoliga tushib qoladi va undan yodgorlik sifatida olib qolgani palosini yopinib, Halabdan bosh olib ketadi va Hind eliga kelib qoladi. Farrux b-n topishgach, shoh unga o‘z xotinini qayta nikohlab beradi va o‘ziga xos nadim qilib oladi.

Bu hikoyat orqali N. futuvvat ta’limotining beqiyos insonparvarlik mohiyati va futuvvat ahlining cheksiz muruvvat va saxovati, mardligi va oliyjanobligini ko‘rsatadi.

Hikoyat tasavvufiy mazmunga ham ega bo‘lib, Shayx San’on tarso qiziga oshiqlik orqali nafsini o‘ldirganidek, “zuhd-u taqvoni shior”, “poklikni hisor” etgan, ko‘nglini faqr b-n mashg‘ul qilib, Farhod kabi saltanatni qabul qilmagan Farrux u-n Gulchehra muhabbati nafs yo‘lidagi hijobni bartaraf etish edi. “Axiy lutfi xarob qilgan” Farrux sevgani b-n aka-singil tutinib, ishq dardi va ko‘ngil zaxmidan forig‘ bo‘lgani xususida shoir shunday yozadi:

Shukrkim, yetti lutfi Yazdoniy,
Qolmadi zulmi nafsi zulmoniy

Ad.: *Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Фарҳанги забони тожики. Жилд 1. – М., 1969; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Т., 1983; Ўзбек адабиёти тарихи. 2-жилд. – Т., 1977.*

B.R.

AXIYLAR (Futuvvatiylar) – jamoa nomi. N. asarlarida futuvvatiy shaklida ham uchraydi. Mashhur arab sayyohi Ibn Batuta muhtasham "Sayohatnoma" kitobida ular haqida hayrat va e'tirof b-n shunday yozgan: "Men dunyoni kezib, bunday odamlardan ko'ra ezgu niyatli va ezgu xulqli kishilarni ko'rmadim". Ular uyushgan holda o'z ezgu niyatlarini amalga oshirgan, inson axloqini poklash, mehr-u shafqat, himmat va mardlik ko'rsatishni targ'ib etgan. Tasavvufning tavba, sabr, qanoat, parhez, botiniy tahorat kabi talablari axiylar tomonidan qabul qilingan, amaliy qoidalarga aylantirilgan. Ular javonmardlar, fatiylar deb ham atalgan. Umrini do'stlar, birodarlar xizmatiga bag'ishlash, faqat yaxshilik qilishdan charchamaslik, ezgu xulq-atvorga ega bo'lish, borini o'zgalar b-n baham ko'rish, muhtojlarga yordam berish, pir-u ustozlar, do'st-u birodarlar nomusi, sharafini himoya etish, zohiran va botinan pok yurib, ruhi, jismi, qalbi pok insonlar suhbatini qozonish hamda Allohning nomini tilidan qo'ymaydigan, hamisha toat-ibodat b-n shug'ullanadigan, fidoyilik udumiga sodiq kishilarning uyushgan harakatidir. Temuriylar Uyg'onish davri futuvvatiylari (axiylari) qoidasi, odobini N. "F.K." devoniga kiritgan 86 ta fardning 5-fardida qisqa tarzda shunday poetik talqin qilgan:

Muruvvat – barcha bermakdur, yemak yo'q,
Futuvvat – barcha qilmakdur, demak yo'q.

Mashhur pandnomalar, tasavvuf haqidagi kitoblarda A.ning rasm-u rusumi, odobi xususida fikrlar aytilgan. Hikmat, axloq va falsafa borasida qimmatli kitoblar bitgan Husayn Voiz Koshifiyning (N.ning yaqin do'sti va muxlisi bo'lgan, unga bag'ishlab "Mavohibi oliya" asarini yozgan, N. ham o'z navbatida Koshifiyni hurmat qilgan, tazkiralarida uning iste'dodini yuqori baholagan) "Futuvvatnomayi sultoniy" nomli kitobi mardlar, A. dasturi, qoida-nizomlarini qamrab olgan va sodda va ravon tilda yozilgani b-n ajralib turadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Ибн Батута. Саёҳатнома. (Араб тилидан академик Н.Иброҳимов таржимаси). – Т., 2012; Кошифий Ҳусайн Воиз. Футувватномаи султоний (Форс тилидан Н.Комилов таржимаси). Т., 2011.*

B.R.

AXIY FARAJ ZANJONIY (vafoti hijriy 457) – Tasavvuf arboblaridan. Eronning shimoliy-g'arbiy qismida joylashgan Zanjon shahrida tug'ilgan va shu yerda yashab vafot etgan. Qabri ham Zanjon shahrida. Shayx Abulabbos Nihovandiyning muridi edi. Zanjonda xonaqohi bo'lgan va u yerda darveshlar, musofir va mehmonlarga taom berilgan. Rivoyatga ko'ra, A.F.Z.ning bir mushugi bo'lib, u mehmonlar kelishidan oldin mehmonlarining soni nechta bo'lsa shuncha marta miyovlar va shu tariqa xonaqoh xodimini mehmonlarning qanchaligidan ogoh etar, xodim shunga yarasha taom pishirar ekan. Mushuk hech qachon adashmas ekan. Lekin kunlardan bir kuni bir mehmon ortiqcha keladi va bir kishiga osh yetmaydi. Darveshlar hayron bo'lib qoladilar. Shunda haligi mushuk mehmonlarini birin-ketin iskay boshlaydi va ulardan birining ustiga bavl qiladi. Surishtirsalar, u kishi dindan begona bo'lib chiqadi.

Mushukning o'limi ham o'ziga xos tarzda sodir bo'ladi. Xonaqohda sutli ovqat pishirish u-n qozonga sut solib qo'yadilar. Bir ilon ana shu sutga tushib o'ladi. Oshpaz bundan bexabar ishini davom ettiradi. Mushuk qozon atrofida aylanib, qancha miyovlasa ham e'tibor bermaydi. Shunda mushuk o'zini qozonga tashlaydi va halok

bo‘ladi. Xodim qozondagi sutni to‘kish paytida ilonning o‘ligini ko‘rib, mushukning nega bunday qilganini tushunadi. Shayx deydiki, mushuk darveshlar u-n o‘zini fido qildi. Shu sababli mushuk u-n xonaqoh ichida qabr qazib, o‘sha yerga dafn etadilar.

Yuqoridagi ikki rivoyat N.ning “N.M.” asarida bayon qilingan. Tazkirada A.F.Z.ning faoliyatiga, hayotiga yoki qarashlariga doir boshqa ma’lumotlar keltirilmagan. A.F.Z. deb atalishiga qaraganda mazkur shayxning tasavvufdagi axiylik (futuvvat) oqimiga aloqasi bo‘lgan. Lekin, ikkinchi tomondan, bunday bo‘lmasligi, bu o‘rinda Axiy so‘zi shaxs ismining tarkibiy qismi bo‘lishi ham mumkin. N. bu haqda hech narsa demagan

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

Q.E.

ASHIRBOYEV Samixon (1940, Toshkent) – tilshunos olim, f.f. d-ri, prof. N. nasriy asarlarining sintaksisini o‘rganish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan. Uning natijasi o‘laroq 1990-y.da “Alisher Navoiyning nasriy asarlaridagi sodda gaplarning ma’no va tarkibiy xususiyatlari” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Ishda N.ning nasriy asarlaridagi gap qurilishi, gap bo‘laklari, ularning ma’no xususiyatlari o‘rganilgan. Bosh bo‘laklarning shaxs va sonda moslashuvi ko‘rsatib berilgan. Sodda gaplarning kirish so‘z va kirish iboralar b-n murakkablashuvi ta’kidlangan. Shoir asarlari sintaksisiga fors tilining ta’sirini aniqlagan. Ishda N. tiliga xos sintaktik birliklar hozirgi zamon o‘zbek tiliga qiyoslangan. O‘xshash va farqli tomonlari ko‘rsatilgan, murakkablashgan sodda gaplarning yasalish tamoyili aniqlangan. Olim sodda gaplarda xalq so‘zlashuv tilining ta’sirini so‘z tartibi, gap bo‘laklarining o‘zaro bog‘lanishi, qo‘shma gap ko‘chimidagi sodda gap qismlarini bog‘lashda qatnashadigan bog‘lovchilarda ekanligini aniqlagan.

Bu ish yuzasidan ikkita – “Alisher Navoiyning nasriy asarlaridagi sodda gaplarning ma’no va tarkibiy xususiyatlari” (1990) va “Alisher Navoiyning nasriy asarlarida murakkablashgan sodda gaplar” (1993) monografiyalari va “Alisher Navoiy prozasi – sintaktik tadqiqot obyekti” (1988) risolasini nashr ettirdi.

Shuningdek, N. sintaksisi muammolari bo‘yicha 20 dan ortiq maqolalar e’lon qilgan. Bularga “Bir sintaktik norma tarixidan” (1987), “Alisher Navoiy prozalari nashr tekstlarini tayyorlashning muhim bir tomoni haqida” (1987), “Navoiy prozasidagi sodda gaplarda ega va kesim mosligi” (1988), “Alisher Navoiy prozasi sintaksisi va jonli so‘zlashuv tili” (1988), “Alisher Navoiyning nasriy asarlarida qo‘llangan izoh va kiritma iboralarning tarkibiy xususiyatlari” (1990), “Alisher Navoiy nasriy asarlari sintaksisi va norma” (1997), “Alisher Navoiy asarlarida murojaat shakllarining qo‘llanish xususiyatlari” (2011) jurnal maqolalarini keltirish mumkin. “Turk lahjalari va adabiyoti” jurnalida “Alisher Navoiyning nasriy asarlarida ajratilgan bo‘lak va ilova iboralar” (Anqara, 1997) maqolasi bosilgan.

A.S. N. tili bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga rahbarlik ishlarini ham amalga oshirgan: “Alisher Navoiyning nasriy asarlarida bir bosh bo‘lakli gaplar” (I.Azimov), “Alisher Navoiyning nasriy asarlarida ergashtiruvchi bog‘lovchili gaplarning sintaktik-semantik xususiyatlari” (M.Rahmatov), “Alisher Navoiyning “Ilk devon”idagi arabcha o‘zlashmalarning leksik-semantik talqini” (M. Tojiboyeva)

Ad.: *Аширбоев С. Алишер Навоийнинг насрий асарларидаги содда гапларнинг таркиби ва маъно хусусиятлари. Филол. фан. докт. дисс. автореф. – Т., 1990.*

E.U.

“ASHI’AT UL-LAMA’OT” (“Porloq shu’lalar”) – Abdurahmon Jomiyning Faxriddin Iroqiyning “Lama’ot” nomli mashhur asariga yozgan sharhi (1482). Ibn Arabiyning vahdat ul-vujudga oid ta’limoti murakkab ilmiy-badiiy til va uslub-

da, majoziy yo‘sinda bayon etilgani jihatidan uni anglash chuqur irfoniy bilim va dunyoqarashni taqozo etar edi. Shuning u-n N. iltimosiga ko‘ra, Jomiy unga sharh bitadi. Bu haqda N. “X.M.”da “alar “Ashi’at ul-Lama’ot”ki, bu toifa kutub va rasoli arosida ma’lum emaski, hargiz andoq sharh qalamga kelmish bo‘lg‘ay, bunyod qildilar” deb lutf etadi. “N.M.”da yozilishicha, bundan maqsad shuki, to muxlislar “mutolaa qilib, maoniysidin fayz olg‘aylar va oning nafosatin bu ilmda bilg‘aylar”. Tasavvufshunoslar uni “Lama’ot”ning eng mukammal va mashhur sharhi, deb hisoblaydilar. Bu sharh N. dunyoqarashiga kuchli ta’sir ko‘rsatibgina qolmay, Xuroson va Movarounnahr zaminida shakllangan tasavvufga yangi nafas bag‘ishladi va naqshbandiyaning keyingi rivoji, umuman, falsafiy-tasavvufiy tafakkur taraqqiyotida yorqin iz qoldirdi.

“A.L.” H.Muxtorova tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilinib, “Abdurahmon Jomiy” nomli to‘plamda muxtasar so‘zboshi b-n e’lon qilingan. Uning qo‘lyozmalari O‘zR FAShIda saqlanadi

Ad.: *Алишер Навоий. Хамсат ул-мутаҳаййирин. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., Абдураҳмон Жомий. Ашиъат ул-Ламаъот. // Абдураҳмон Жомий (Тўплам). – Т., 1997; 2011; Холмўминов Ж. Жомий ва ваҳдати вужуд таълимоти. – Т., 2008.*

E.O.

ASHK – Q.: KO‘Z.

ASHK – Ashk Bauman ibn Arduvonning avlodidan bo‘lgan podshoh. Tarixiy manbalarda, A. sulolasi “Ashkoniyon” deb yozilgan. Ba’zi manbada A. Kovusning o‘g‘li, deb kelgan. A. taxtga (mil. av. 250-y.) o‘tirganida unga qarshi ichki nizo boshlanib ketadi. A. jangda qo‘lidan jarohat olib, mil.av. 247-y.da vafot etadi. N. “T.M.A.”da shunday ma’lumot keltiradi: “...Va davlat ul tabaqadin Ashkoniylarg‘a muntaqil bo‘lganda…”. “…Ashkoniylarni bu Ashk binni Doro nasli debdur…”

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алиакбар Деҳхудо. Луғатнома. 2-жилд. – Теҳрон, 1998.*

Muh.A.

ASHKONIYLAR – Ajamda hukmronlik qilgan sulola. Bu sulolaga mansub hukmdorlar eramizgacha bo‘lgan 250-y.dan eramizning 224-y.iga qadar taxtda o‘tirganlar. A. mazkur sulolaning Sharq tarixnavis an’anasida qabul qilingan nomidir. Zamonaviy tarix fanida u Arshakiylar deb ataladi. Ayrim tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, Arshakiylarning kelib chiqishi turkiy qavmlardandir. Sulola asoschisi Arshak o‘zining ilk qadamini Parfiyani birlashtirishdan boshlagan, uning ukasi Tiridan Girkoniyani egallagan. Arshakiylar hukmronligining muayyan bir davri saklar b-n kurashda o‘tgan. Saklar ularga bir necha marta qattiq zarba berganlar. Arshakiy Fraat 129-y.da saklar b-n urushda o‘ldirilgan. Undan keyin taxtga o‘tirgan Arduvon (Artoban) ham saklar b-n kurashda halok bo‘lgan. Fraat III davrida Arshakiylar birmuncha kuchaygan va Bobildan (Vavilondan) to Amudaryogacha bo‘lgan hudud unga bo‘ysungan. Sulolaning hukmronligiga eramizning 224-y.ida barham berilgan.

N. “T.M.A.” asarida A. xususida batafsil ma’lumotlar beradi. N.ning yozishicha, sulolaning asoschisi Ashk binni Dorodir. N. ushbu sulola vakillarining soni va hukmdorlik qilgan davri to‘g‘risida manbalarda turlicha ma’lumotlar berilganini aytib o‘tadi va o‘zi A.dan 15 kishini zikr etadi. Bular quyidagilardir: Ashk binni Doro, Shopur binni Ashk, Bahrom binni Shopur, Yalosh binni Bahrom, Hurmuz binni Yalosh, Anush binni Yalosh, Gudarz binni Uyg‘ur, Eron binni Yalosh, Narsi binni Gudarz, Xurmuz binni Yalosh, Feruz binni Hurmuz, Xusrav binni Feruz, Yalosh binni Feruz, Yalosh binni Yalosh, Arduvon binni Yalosh. Arduvon A.ning so‘nggi vakili hisoblanadi. Undan hokimiyatni Ardasher Bobak tortib olgan va yangi sulolaga asos solgan.

N. “S.I.” dostonining XIII bobini A.ga bag‘ishlagan. “Uchunchi tabaqakim, Ashkoniydur-

kim, alarni muluki tavoyif ham debturlar, alar holatidin doston surmak” deb sarlavha qo‘yilgan ushbu bobda N. A. hukmdorlarining nomlarini she’riy misralarda keltirib, ta’riflab o‘tadi. “T.M-.A.”dagidan farqli o‘laroq, N. bu yerda ularning sonini o‘n to‘qqizta deb ko‘rsatadi:

Ki o‘n to‘qqiz erdi uchunchi muluk,
Ki bor erdilar olam ichra muluk.

A. haqida ma’lumotlar “T.M.A.”da ham, “S.I.”da ham qisqa va muxtasar tarzda bayon qilingan. Aksariyat hollarda muallif har bir hukmdorga xos xususiyatni ta’kidlab o‘tish, podshohlik muddatini ko‘rsatish b-n cheklanadi. M-n, Feruz binni Hurmuz zikrida uning adolatli podshoh bo‘lgani, ovni yaxshi ko‘rgani va 7 yil taxtda o‘tirgani qayd etilgan. Yalosh binni Feruz zikrida esa uning hunarparvar shoh bo‘lgani, hunar egalariga iltifot ko‘rsatgani, uning davrida hunarmandchilikning rivoj topgani va u 40 yil podshohlik qilgani aytib o‘tiladi. Arduvon binni Yalosh haqida N. “Ashkoniylarning so‘nggi podshohi erdi” deb yozadi va undan keyin saltanat sosoniylar qo‘liga o‘tganini qayd etadi

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. TAT. 10 жилдлик, 8-жилд. – T., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. TAT. 10 жилдлик, 8-жилд. – T., 2011; Пигулевская Н.В., Якубовский А.Ю., Петрушевский И.П., Строева Л.В., Белинецкий Л.М. История Ирана с древнейших времен до XVIII века. Из., Лен., 1958.*

Q.E.

ASHRAF – Abuali Husayn ibn Hasan Marog‘iy (t.y.n., vafoti 1460, ba’zi manbalarga ko‘ra 1466). A. Darvesh Ashrafiy Xiyoboniy nomi b-n ham mashhur. A. Jahonshoh Qoraquyunli (1437–67) davrida yashagan va uning o‘g‘li Pirbudog‘ o‘z ukasi tomonidan o‘ldirilgach, saroydan bezgan A. Bag‘doddan Tabrezga qaytadi va ijod b-n shug‘ullanadi. A. ning Hirotda bo‘lgani haqida ma’lumot yo‘q, lekin A. “Xamsa”sining oxirgi dostoni “Zafarnoma” Shohruxga bag‘ishlangani uning Hirot adabiy muhitiga aloqadorligidan dalolat beradi. “M.N.”dagi ma’lumotda esa A. Hirotda bo‘lgani ko‘rsatiladi. A. Xusrav Dehlaviy asos solgan devonlar tartib etish va ularga alohida ismlar berish an’anasini davom ettirgan. A.ning forsiydagi lirik merosi 4 devonga ajratilgan va ular “Unvon ush-shabob”, “Xayr ul-umur”, “Boqiyot us-solehot” va “Muvaldadot ut-tajaliyot” deb nomlangan bo‘lib, qasidalar, g‘azallar va ruboiylar hamda turli shakldagi lirik she’rlardan tarkib topgan.

A. “Ali ibn Abu Tolibning 100 hikmatli so‘zlari”ni forsiy she’rga tushirgan.

A.ning “Xamsa”si Nizomiyning “Panj ganji”ga javoban yaratilgan. Undagi dostonlar “Minhoj ul-abror”, “Riyoz ul-oshiqin”, “Ishqnoma”, “Haft avrang” va “Zafarnoma” deb ataladi. A. “Xamsa”si 23 ming 830 baytdan iborat.

A.ning ozarbayjon tilida she’rlar va “Sad pandi Ali” nomli asar yozgani manbalarda qayd qilingan esa-da, ular hamon topilgan emas.

N. A. haqida “M.N.” va “X.” dostonlarida ma’lumot beradi. M-n, “S.S.”da N. yozadi:

Garchi bir nuktago‘y Ashraf o‘lub,
O‘zi maqdurig‘a musharraf o‘lub.

Yaxshi yoxud yomon dedi g‘am yemas,
Yaxshi gar bo‘lmasa, yomon ham emas.

Bu yerda A. “Xamsa”siga N.ning bergan bahosi mavjud.

N. o‘zining xamsanavis salaflari qatorida A. xizmatlarini ham e’tirof etib o‘tadi.

N. “M.N.” asarida A.ga alohida fiqra bag‘ishlaydi, unda so‘zni Hirot shahrida bo‘lur erdi, deb boshlaydi va so‘fiy tariqati b-n bog‘liqligini boshiga kiyiz bo‘rk kiyib yurishini yozadi. N. aytishicha, she’riyat ahli ulug‘lari b-n suhbatda bo‘lar, lekin ularning ko‘pchiligi A.ning dar-

veshligini nazarda tutib, ta’zim qilar ekanlar. N. A. “Xamsa” yozish u-n ko‘p vaqt sarf qildi, oxiri uni tugatishga musharraf bo‘ldi, – deb ta’kidlaydi va shu ma’noga mos tushadigan quyidagi baytini keltiradi.

Az sharafi vasli tu Ashraf shudem,
Davlati mo bud musharraf shudem.

Tarj.: Sening vasling sharafi b-n Ashraf (sharafli) bo‘ldik, u bizning davlatimiz edi, (unga) musharraf bo‘ldik.

N.ning “N.M.” va bu yerdagi A.ni kiyiz qalpoq ustidan jun sallacha o‘rab yurishi haqidagi ma’lumotidan uni ko‘rgan, deyish mumkin. Lekin A.ning el b-n aloqasi bo‘lmaganini yozar ekan, N. bu holni ijobiy baholamagan ko‘rinadi.

N. A. lirikasidagi quyidagi matla’ni keltiradi:

Xohamki, cho‘bi tir shevam, to goh-goh,
Barholi man go‘shayi chashmi kuni nigoh.

Tarj.: O‘qning yog‘ochi bo‘lishni istayman, toki ba’zi-ba’zida ko‘z uchida mening holimga qarar eding.

A. ijodi endi o‘rganila boshlandi, asarlari ham nashrga tayyorlanmoqda.

A. “X.”si qo‘lyozmalari Oksfordning “Bodlean”, Kohiradagi “Dor ul-kutuba” va Amerikaning Prinston universiteti kutubxonalarida saqlanadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Бертельс Е.Э. Навои и Джами. – М., 1965; Нафисий С. Тарихи назму наср дар Эрон ва дар забони форсий. – Теҳрон, 1344; Алиев Г.Ю. Темы и сюжеты Низами в лит-рах народов Востока. – М., 1985.*

S.G‘.

ASHURALI Zohiriy (taxallusi, to‘liq ismi: Ashurali Muhammad Zohir o‘g‘li, 1885, Qo‘qon – 1937, Toshkent.) – qo‘qonlik adabiyotchi-ma’rifatparvar, jurnalist, xattot va noshir. Madrasa va rus-tuzem maktablarida ta’lim olgan. 1910-yy.dan boshlab mahalliy matbuotda maqolalari b-n chiqadi, xattot va noshir sifatida faoliyat ko‘rsatadi. “Sadoyi Farg‘ona” gazetasi va “Yurt” jurnali hay’atida, keyinchalik “Yangi Farg‘ona” gazetasida ishladi. Turkolog olimlarning Bokuda 1926-y.da o‘tkazilgan Butunittifoq I qurultoyida ishtirok etdi.

A.Z. N. ijodining tadqiqotchisi va targ‘ibotchisi sifatida ham ma’lum ishlarni amalga oshirdi, qator maqolalar e’lon qildi. 1916-y.da “V.”, “M.L.” asarlarini chiroyli nasta’liq xati b-n nashrga tayyorladi. 1917-y.da uning bir qismi Qo‘qonda litografik usul b-n “Asari Amir Nizomiddin Alisher al-Navoiy. “Muhokamat ul-lug‘atayn”. Turk lug‘ati b-n forsiyning muhokomasidin iboratdur” nomi ostida nashr etildi. A.Z. nashrga muqaddima sifatida Samiybeyning “Qomus ul-a’lom”ida N. hayoti va ijodi haqida keltirgan ma’lumotlardan keng foydalanadi. “M.L.”ning katta ilmiy va amaliy ahamiyatini ta’kidlaydi. Akad. N.Samoylovich A.Z.ning bu nashri haqida 1928-y.da Bokuda nashr etilgan “Mir Ali Sher” to‘plamida qator ijobiy fikrlarni bayon qilgan.

A.Z. “Adabiyot parchalari” darslik-majmuasiga (A.Sulaymon b-n hamkorlikda. – T., 1926.) kiritgan “Navoiy” nomli maqolasida ulug‘ shoirning hayoti va ijodi haqida so‘z yuritadi.

U “H.A.”, “S.I.”, “M.Q.” kabi asarlardan qator hikoyat va parchalarni darslikka kiritadi. “Navoiy yubileyi va tarjimayi holig‘a bir sahifa” deb nomlangan maqolasida (“Maorif va o‘qituvchi”, 1927-y., 1-2 sonlar). Shoirning tug‘ilganiga 500 yil to‘lishini munosib tayyorgarlik b-n kutib olish u-n ilmiy markaz qoshida rasmiy yubiley komissiyasi tuzish, N.ning mufassal tarjimayi holini yaratish kabi muhim tashabbus b-n chiqadi hamda ilova tarzida N.ning Husayn Boyqaroga yozgan maktubi va uning javob xatini e’lon qiladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011;*

Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Р.Тожибоев. Ашурали Зоҳирий – Навоийшунос. // Ўзбек тили ва адабиёти журнали, 1988 йил, 3-сон.

A.A.

ASHHAB – Sulton Husayn Boyqaroning oti. Bu otni podshoh juda yaxshi ko‘rgan, ko‘p to‘qnashuvlar va urushlarda A.ni minib jangga kirgan. Manbalarda A.ning ta’rifi va tavsifini uchratish mumkin. Ularga ko‘ra, bu ot benihoyat chiroyli, ayni paytda o‘ta chopqir bo‘lgan. Uni chaqmoqqa qiyos qilganlar. Chopqirligi shu darajada bo‘lganki, uni mingan odam biron narsani yoki kishini mo‘ljalga olib, o‘q uzsa va keyin u tomonga ot solsa, ot o‘sha nishonga o‘qdan oldin yetib borar, o‘q esa ot o‘tib ketgandan so‘ng mo‘ljalga tegar ekan.

Sultonning A.ga bo‘lgan mehri tufayli u hammaning diqqat-e’tiborida turgan, A. b-n bog‘liq naqllar paydo bo‘lgan. Ulardan birini Zayniddin Vosifiy “Badoye’ ul-vaqoye”da keltiradi. Unda hikoya qilinishicha, o‘sha paytda otlarga o‘lat kelgan, har kuni miroxo‘r o‘lgan otlar haqida xabar keltirar ekan. A.ga ham o‘lat tekkan va u kasal bo‘lgan. Podshoh “kim Ashhabning o‘lgani haqida xabar keltirsa, uni ikki nimta qilaman”, degan. A. o‘lgandan so‘ng hech kim buni shohga ayta olmagan va nihoyat amir Bobo Mahmud bu xabarni yetkazishga rozi bo‘lgan. U Sulton Husayn huzuriga kirganda podshoh A. haqida so‘ragan. Bobo Mahmud A.ni ko‘rgani, u yangi qiliq va odatlar kasb qilgani, chunonchi arpa, somonni umuman yemayotgani, suv ichmay qo‘ygani va hatto nafas ham olmayotganini aytadi. Shunda podshoh “Unda Ashhabim o‘libdi-da!” – deb xitob qiladi. “Buni o‘zingiz aytdingiz, podshohim”, – debdi Bobo Mahmud va shu tariqa mushkul ahvoldan topqirlik b-n chiqib ketadi.

A. va uning ta’rifi N. asarlarida ham bor. “H.A.”ning shoh madhiga bag‘ishlangan XVI bobida N. A. vasfida ham qalam suradi:

Ashhabi rang ichra bo‘lub barqfom,
Rangi nekim, po‘yada ham barqgom.

Muzmar ayog‘i, ilgida sabo,
Oti bu ma’nidin bo‘lub bodpo.

Har sorikim po‘ya qilib tezu tund,
Tavsani aflok o‘lib ollida kund.

N. A.ning harakatlaridagi o‘ziga xoslikni, yurishida, yo‘rg‘alashidagi go‘zallikni alohida ta’riflaydi. A. shunday chiroyli yo‘rg‘alaydiki, uning oldida kabki dari xuddi zog‘dek (qarg‘adek) bo‘lib ko‘rinadi:

Sakramak ichraki aning yo‘q hadi,
Gunbadi gardun kabi har gunbadi.
Yo‘rg‘alamoq vaqti chu solib ayog‘,
Kabki dari oldida andog‘ki zog‘.

Quyidagi baytda podshoh odatda urushga shu otni minib kirishi va ming-minglab dushmanlarni mag‘lubiyatga uchratgani ta’kidlanadi:

Ish kuni bu raxt uza javlon urub,
Yuz tuman a’do cherikin sindurub

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Зайниддин Восифий. Бадоеъ ул-вақоеъ. – Т., 1979.*

Q.E.

A’ZAMOV ABDULLA (A’zamov Abdulla Azamovich; (1947, – Andijon) – akad., matematik olim, O‘zbekiston matematika jamiyati raisi (2013-y.dan). M.V.Lomonosov nomidagi MDUning Mexanika-matematika fakultetini tamomlagan (1970), fizika-matematika fanlari d-ri. (1987), prof. (1988). A.A. Bobur xalqaro mukofoti (2015), “Mehnat shuhrati” ordeni, (2016), O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi (2023) faxriy unvoni b-n taqdirlangan. A.A. O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasining a’zosi, N.ga bag‘ishlangan “Dugoh husayniy (drama-

versiya)” va “O‘zini o‘zi izlagan va topa olgan zot” kabi pyesalar yozgan hamda “Munojotnoma”, “Aruz” (Navoiy va Boburdan aruz saboqlari), “Navoiy g‘azallarida hazil-mutoyiba”, “Abrorlar hayrati” nomli kitoblari nashr qilingan.

Olim “Navoiy g‘azallarida hazil-mutoyiba” kitobida N.ning “X.M.” devonlariga kirgan g‘azallaridagi hazil-mutoyiba ruhidagi baytlarini jamlagan, baytlar matnidagi ba’zi qiyin so‘zlar lug‘ati, izohlar ham berilgan. Aruz vaznining mukammalligini ko‘rsatish va baytlarni ifodali o‘qish maqsadida maxsus belgilar vositasida rukn va hijolarga ajratilgan. Kitobda “Aruz vaznidagi she’rlarni o‘qish to‘g‘risida” ilovaning berilishi ham kitobning qiymatini oshirgan. “Abrorlar hayrati” kitobida esa olimning ulug‘ N. asarlarida yoritilgan inson va olam mavzusining yangicha talqinlari b-n tanishamiz.

Ad.: *Муножотнома (1-нашри, 1996. “Наманган”, 2-нашри; 2006, “Маърифат”); “Аруз” (Навоий ва Бобурдан аруз сабоқлари). А.Навоий номидаги Ўзбекистон давлат кутубхонаси, 2006; Навоий ғазалларида ҳазил-мутойиба (1-нашри, 2009, “Янгийўл полиграфсервис”, 2-нашри, 2015.) Аброрлар ҳайрати”. – Т., 2021.*

B.R.

AQD (ar. – band, tugun) − nasrni nazmga aylantirishga asoslangan badiiy san’at. Shoirlar ko‘pincha maqolning mazmunini muayyan maqsad (fikrni dalillash, o‘xshatish va h.k.) b-n she’rga olib kiradilar. Maqolning mazmuni sezilib tursa-da, uning shakli she’riy vazn talablariga moslashgan holda yangicha qiyofa kasb etadi, aniqrog‘i, u she’rga aylanadi. N. asarlarida A. san’atining xilma-xil namunalari mavjud.

M-n:

Yuqar yomonlig‘ angakim, kirar yomon el aro:
Ko‘mur aro ilik urg‘an qilur ilkini qaro.

Yoki:

Bo‘rk o‘rnida bosh eltur, naqd o‘rniga jon:
Atfoli g‘aming ichra bas turfa o‘yunlardur.

Birinchi baytda “qozonga yaqin yursang qorasi, yomonga yaqin yursang balosi yuqadi”, ikkinchi baytda “bo‘rkini (hozir do‘ppisini) olib kel, desang, boshini olib kelmoq” degan maqollar mazmuni she’rga solingan.

N. asarlarida A. san’atining xilma-xil namunalari mavjud

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т., 2006.*

Y.I.

AQIDA (ar.– ishonch, e’tiqod, qarash) – islomda har bir musulmon odam hech o‘ylamasdan va muhokama qilmasdan ishonishi, iymon keltirishi hamda tasdiqlashi shart bo‘lgan e’tiqodiy hukmlar. N. hanafiy mazhabi, naqshbandiya tariqati va Imom Motrudiy e’tiqodiga mansub edi. (qarang: Imom Motrudiy). Shu bois asarlarida Imom Motrudiyning e’tiqodiy qarashlarini targ‘ib qildi. Bu ta’limotning boshi Allohning yakka-yagonaligiga, uning farishtalariga, kitoblariga, payg‘ambarlariga, qiyomat kuniga, yaxshilik va yomonlik Allohdan ekanligiga, o‘lgandan so‘ng qayta tirilishga ishonishdir. Bundan tashqari, musulmon odam do‘zax, jannat, qabr azobi, oxiratdagi hisob-kitob, tavhid va shirk masalalarida ham to‘g‘ri e’tiqodda bo‘lishi lozim. A. iymon masalasi b-n bog‘liq bo‘lgani u-n ular o‘rtasida mushtarak qarashlar mavjud.

Islom A.larining asoslari Qur’on va hadislarning ko‘rsatmalari negizida ishlab chiqilib, tartibga solingan. Islomda ta’kidlanishicha, kishining A. si sog‘lom, ahli sunna val-jamoa e’tiqodiga muvofiq bo‘lsa, ikki dunyoda saodatga erishadi.

Birinchi payg‘ambar Odam (a.s.)dan tortib, hozirgi kunimizga qadar payg‘ambarlarning shariatlari o‘zgarib kelgan bo‘lsa-da, A. masalasi o‘zgarmas bo‘lib kelgan. Bu masala o‘ta muhim bo‘lgani u-n ham Odam (a.s.) dan boshlab, Mu-

hammad (s.a.v.) gacha e'tiqodiy hukmlarni Alloh taoloning o'zi bayon qilib, ko'rsatib bergan.

N. hayotiga nazar solsangiz, u o'z e'tiqodiga sobit qolgan va odamlarga har jihatdan namuna bo'lgan mutafakkir ijodkordir. N. o'z davrida asarlari orqali Movarounnahr va Xurosonda e'tiqodda soflik, amalda sobitlik, axloqda mukammallikni targ'ib qildi.

N. A. qarashlarini "S.M." va "H.A." dostonlarida batafsil yoritdi. "S.M."da shariat hukmlarini ikkiga: aqiyda (Iymon), amal (Islom) ruknlariga bo'ladi va amaldan oldin A. masalasi zarur bo'lgani u-n, uni bayon qiladi:

Amaldin chun burun keldi aqoyid,
Bas, andin yetkuray avval favoyid.

N. e'tiqodga tegishli bo'lgan: Allohga va uning sifatlariga, farishtalarga, ilohiy kitoblarga, payg'ambarlarga, qiyomat qoyim bo'lishiga, taqdirga iymon keltirish lozimligini uqtiradi. U A.ning birlamchi unsurlarini bayon qilgach, musulmon kishi e'tiqod qilishi lozim bo'lgan boshqa bir qator aqiyda masalalariga ham to'xtaladi: Ular: qabr azobi, ikki farishtaning savol-javob qilishi, Alloh diydorini ko'rish ehtimoli, Sirot ko'prigi, jannat va do'zax mavjudligi, payg'ambarlarning shafoati, Muhammad (s.a.v.) ning barchadan ulug'ligi, mo'jiza va karomatning haqligi, amr-u nahiyning soqit bo'lmasligi va kohinlarning gaplariga ishonish kufr ekani haqidagi masalalar bo'lib, N. ularni bir-bir keltiradi va haq deb tasdiqlash kerakligini aytadi:

Yana bilkim, aqoid ichra mutlaq,
Necha ish keldi bilmak kerak haq.

Azobi qabr erur kufr ahli xosiy,
Yana din ahlidin ba'zi bo'lsa osiy.

Yana ikki malakningdur savoli,
Yana ham ru'yatulloh ehtimoli.

Yana Haq bir sirot-u, yana mezon,
Yana do'zax, yana firdavsi rizvon.

Shafoat anbiyodin ham erur haq,
Muhammad barchaning sarxayli mutlaq.

Yana Haq keldi e'joz anbiyog'a,
Aningdekkim, karomat avliyog'a.

Yana bilgil aqoid ichra mahsub
Ki, bo'lmas eldin amr-u nahy maslub.

Yana kufr anglag'il tasdiqi kohin,
Nechukkim, Tengridin ma'yus-u emin.

N. "H.A." dostonining birinchi maqolatida ham iymon so'zini sharhlar ekan, A.ga bog'liq bo'lgan olti narsaga: Allohga, uning farishtalariga, kitoblariga, payg'ambarlariga, qiyomat kuniga va yaxshilik va yomonlik (taqdir) Allohdan ekaniga ishonish va iymon keltirish haqida alohida-alohida to'xtaladi. N.ning uqtirishicha, kimki shu olti narsaga iymon keltirsa, u haqiqiy insondir. Ammo faqat tilda emas, amalda, ixlosda iymon shartlarini namoyon qilish kerak. Insonning abadiy najot topishiga sabab bo'ladigan iymon kalimalarini takrorlab yurishning o'zi kifoya emas, uni sog'-salomat oxiratga, Tangri huzuriga olib ketish muhim. Ammo bu baxt kimga nasib qilishi ma'lum emas. "Toki kim o'zining baxtsiz yoki baxtli ekanini bilgunga qadar, – deydi N., – odamlarni bunday xavf ham, umid ham kuydirgani kuydirgan. Najot topish barchaning niyati bo'lib, lekin unga erishish irodaga bog'liq".

Mazhablar o'rtasidagi farq amalda bo'lish b-n birga, e'tiqodda ham ko'zga tashlanadi. N. "N.M."da Sayyid Nosir Xusrav haqida "...ammo bu toifaning aning mazhabida ta'nlari bor va bu ta'n go'yo "Ro'shnoyinoma"sida mazkur bo'lg'on ab'yoti jihatidindurki, hukm mazhabi ravishida voqe' bo'lubdur va mazori Ko'histondadur", deb xabar berar ekan, Nosir Xisravning asosan, aqidaviy qarashlaridagi farqlarni nazarda tutgan.

N. asarlarida e'tiqod tushunchasi faqat diniy mazmun kasb etmasdan, hurmat, ixlos, ishonch kabi ma'nolarda ham qo'llanadi. "N.M." asarida bunga misollar bor. "Va bu toifag'a (so'fiylarga) e'tiqodim bor erdi". "... ul viloyat ahli anga

(Shayx Mavdud Chishtiyga) e'tiqod va irodat va muhabbat maqomida erdi", "..va ba'zining anga (Shayx Shihobiddin Suhravardiy maqtulga) karomot-u maqomotqa e'tiqodlari bor erdi". Ushbu jumlada esa A. o'z ma'nosida qo'llangan. "Va debdurki, (Abu Mansur Muhammad Ansoriy) men yetmish yildin ortiq ilm o'rgandim va bitidim va ranj torttim e'tiqodda".

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Сирож ул-муслимин. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Хамса. (насрий баён). – Т., 2019; Ислом энциклопедияси. – Т., 2017; Навоийдан чу топқайлар навое. – Т., 2014.*

S.R.

AQL – so'fiylarning nuqtayi nazari bo'yicha, ilohiy bir nurdir. So'fiylar ikki turli A. borligini e'tirof etganlar. 1. A.i kull – ilohiy, qudratli, mutlaq aql bo'lib, Tangrining faol tajalliysidan iborat. Ilk marotaba Tangridan dunyoga kelgan bu aql "Aqli avval", "Arshi a'zam", "Jabroil", yoki "Ruhi a'zam" deb atalgan. Shuningdek, haqiqati Muhammadiyani ham so'fiylar A.i kull deganlar:

Eshitib kirdi hakimi kordon,
Aqli kulldek olimi bisyordon.

Devonlarida A.i kull lirik qahramonning turli kechinmalari ifodasi o'laroq keladi:

Nasimi zulfin istishmom qilsa aqli kull,
chiqmas —
Junun atri qiyomatqa degin aning
mashomidin.

Yoxud:

Onsizin pand anga hojat emas,
Aqli kull ollida el pand demas.

"L.T."da Allohning zot-u sifotida A.i kull ham lol ekanligi aytiladi:

Aqli kull hayratda zoting bobida,
Zot yo'q har bir sifoting bobida.

A.i kulldan nafsi kull maydonga kelganki, u Lavhi mahfuz deb nomlangan. 2. A.i juz (aqli majoz) – insonning hayoti, yashash odobi, faoliyatiga tegishli. A.i juz ikkiga ajratilgan: 1) A.i maod – ilhom va irfon b-n tarbiyalangan insonni oxiratdan ogoh qiladigan A. 2) A.i maosh – mavjud dunyoni, hayotni tushunishga xizmat etadigan A. A.i maod iymon sohiblariga, A.i maosh esa barcha kishilar u-n xos deb hisoblangan. A. – Haq b-n botilni ajratuvchi ilohiy bir nur yoki zotida moddadan mujarrad va fe'lida moddaga aloqador javhardurki, har kishining (men) ila ishorat qilgani nafsi notiqadir. Ayrim mutasavviflar, ruhi a'zam va Arshi majidga A.i avval nomini berishgan. Boshqa birlari esa Alloh taolo A.i avvalni yaratib, uch turli ma'rifatni yuzaga chiqardi deyishgan. 1. Ma'rifati Haq. A.i soniy shundan yaratilgan. 2. Ma'rifati nafs. Bundan nafsi kull bino etilgan. 3. Ma'rifati ehtiyoj. Jismi kull va falaki a'zam deyilmish jism ana shundan yaratilgan.

Aql uchub bexudlug' aylarmen,
yo'luqsang nogahon,
Kimsadekkim, telbalik qilg'ay
pariyg'a uchrabon.

N.da aksar ko'ngil A.dan ustun, ba'zan esa ko'ngildagi ishq va ma'rifatga A. hayron tarzda keladi. M-n, "B.B."da o'qiymiz:

Ey ko'ngul, gar aql etar man'i junun, qilma jadal,
Ayb erurkim ahli donish qilsa nodon birla bahs.

Xuddi shu devonning bir o'rnida esa ko'ngilning maqomi A.dan balanddir:

Aql taklif qilur ko'nglumakim, tarki junun qil,
Telbadin kim bu tama' tutqay
agar bo'lmasa ablah?

N.da A. ham rang-barang, yangi bir ifodalarda izohlanadiki, undagi ma'noning hol ila uyg'-

unligi betakrordir. M-n, bir o‘rinda “Aql dehqoni” birikmasini qo‘llaydi:

Yuzung ko‘p ochma, gohi so‘z degilkim,
aql dehqoni
Ne gul isrofini yaxshi demish, ne g‘uncha
imsokin.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005; Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. Душанбе, 1987; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Т., 1983.*

Z.R.



AG‘USTUS QAYSAR (Oktavian Avgust) – Rim imperatori. Mil. av. 27 – mil. 14-yy.da hukmronlik qilgan. Rim imperiyasining tashkil topishi A.Q. faoliyati b-n bog‘liq. Unga qadar Rimda respublika tuzumi mavjud bo‘lgan. Gay Yuliy Sezar suiqasd natijasida o‘ldirilgandan so‘ng (mil. av. 44-y.) Rimda respublika tarafdorlari b-n imperiya tarafdorlari o‘rtasida kurash boshlangan. Bunda A.Q. g‘alaba qozongan va respublika boshqaruviga barham berib, o‘zining yakka hokimiyatini o‘rnatgan.

A.Q. nomi N.ning asarida A.Q. deb tilga olingan. N. asarlarida ko‘plab Rim (Vizantiya) hukmdorlarining faoliyatiga doir qaydlar uchraydi. Lekin N. odatda ularning hammasini “qaysar” deb ataydi va har birining nomini alohida tilga olmaydi. Faqat A.Q. bundan mustasno holda qaysar unvoni oldiga ismi ham qo‘shilib zikr etilgan. N. asarining ashkoniylar sulolasiga bag‘ishlangan qismida Shopur binni Ashk degan hukmdor haqida ma’lumot berar ekan “Va Ag‘ustus qaysar anga muosir erdi”, ya’ni A.Q. u b-n bir asarda yashagan, deb yozadi. Ma’lumki, ashkoniylar sulolasi dunyo tarix fanida arshakiylar deb ataladi va bu sulola vakillari va ularning hukmronlik yillari fanda ma’lum. Ammo ular orasida Shopur binni Ashk qayd etilmagan. Umuman, Ajam hukmdorlari orasida Shopur ismli bir nechta hukmdorlar o‘tgan. Lekin hech biri ashkoniylarga (Arshakiylarga) mansub emas, balki sosoniylar vakillaridir. Binobarin, bu o‘rinda qandaydir chalkashlik mavjudligi ayon va unga aniqlik kiritish talab etiladi. Lekin N. asaridagi parchada mil. eraning boshida yashagan hukmdor haqida so‘z borayotgani va A.Q. deganda ham A.Q. ko‘zda tutilganiga shubha bo‘lishi mumkin emas. Zero, N. o‘sha yerda “Ba’zi debturlarkim Iso (a.s.) ani zamonida mab’us bo‘ldi” deb yozadi. Ma’lumki, Iso payg‘ambar mil. eraning boshida yashagan va faoliyat yuritgan. A.Q. esa mil. 14-y.da vafot etgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Ражабов Қ. ва бошқалар. Жаҳон тарихининг муҳим саналари. – Т., 2011; Ковалев С.И. История Рима. – Л., 1986.*

Q.E.

AHAD (ar. – bir, biror kim, kimsa) – Xudoning yakka-yagonalik sifati. N. “H.A.”ning avvalgi munojotida Allohning Avval sifatini sharhlar ekan, hamma narsadan oldin Uning sheriksiz, yakka-yagona Zot bo‘lganini ham ta’kidlaydi:

Birlik edi-yu adadi yo‘q edi,
Birdin o‘zga ahade yo‘q edi.

N. “F.K.” devonida Allohning yagonalik sifatini yanada ochiqroq va aniqroq ifodalagan. Asli bir bo‘lgan Zotning kasrat olamini yaratgani va har yerda har zamon hozir bo‘lgani, shu bois,“haqiqatbin” odam Alloh har narsada tajalliy qilsa ham Uni yagona Zot deb bilishi zarurligini uqtiradi.

Asli bir zot kelib chunki marotibg‘a o‘tub,
Benihoyat bo‘lub ijod-u sifot ichra adad.

Birdurur asli adad, kimki haqiqatbindur,
Gar adad yuz tuman o‘lsa, tuzatur birga sanad.

Ey Navoiy, desang ixlos ila bu sirni tilay
“Qulhuvallohu ahad”,
so‘ngradur “Allohussamad”.

N. A. kalimasi orqali Allohning sifatidan tashqari, so‘z birikmalari yasab, turli mazmunda baytlar bitgan. Bog‘i A.– Allohning bog‘i (jannat):

Yoki bular barchasi ta’vil erur,
Arshi muallo aro qandil erur.

Balki, bu qandil aro aylab ayon,
Bog‘i ahad foxtasi oshyon.

Ahade **–** Hech ahad – Hech kim, biror kimsa:

Shukuhi bila farridin hech ahad,
Topa olmay ollida so‘z derga had.

Ad.: *Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Турсун Аҳмад, Жуман Муҳаммадшариф. Ислом дини. – Т., 2013.*

S.R.

AHVOL I (ar. – holning ko‘pligi) – hollar, hislar, tuyg‘u-kechinmalarning kelib-ketishi. Bir holdan boshqasiga o‘tish. Vajd, jazba, ishq, shavq, sukr, g‘aybat va istig‘roq kabi hollar insonni o‘zidan ketkizadi, mast-u sarxush etib, aql-u hushidan judo qiladi. Ana shu hollarda solikning pok qalbiga g‘ayb olami va Alloh tarafidan ilohiy fayz va ma’nolar yetadi.

Hol deganda narsaning sifati va uning qandayligini nazarda tutadilar. Soliklar nazdida esa ko‘ngilda kechadigan va turli kayfiyat tug‘diradigan shodlik, qayg‘u, shavq kabi holatlar. A. – oliy mabdadan solik diliga inadigan fayz kayfiyati. Ayni jihatdan uni fayz, ilohiy kayfiyat ham deydilar. M-n, N. “N.M.” tazkirasida Qosim Harbiy haqida “Uning ahvoli Allohga bog‘liq bo‘lib, dunyoviy narsalardan xoli edi”, – deb yozsa, Abdulhamid G‘azoiriy “Uning ajoyib ahvoli va yuksak darajasi bo‘lib, abdol (avliyo)lardan edi”, – deb ma’lumot beradi. Mashhur tasavvuf olimi Abdurrahmon Sulamiyning ta’kidlashicha: “So‘fiy uchun ikki narsa shart: ahvolda sodiqlik va muomalada odob”.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Ҳаққул И. Тасаввуф ва шеърият. – Т., 1991; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва таъбироти ирфоний. – Теҳрон, 1370 (ҳ.-ш.); Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005; Абдуллаев А. Тасаввуф ва унинг намояндалари. – Т., 2009.*

I.H., E.O.

AHVOL II – Sharq nasridagi inshoning tarkibiy qismlaridan biri. Alqobdan (maktub kimga yo‘llangan bo‘lsa, o‘sha kishining laqab va unvonlari, oti, uni ulug‘lovchi epitetlardan iborat bo‘lgan qism) keyin keladi. Ushbu qismda xat yo‘llovchining muddaosi bayon etilgan. Inshoning asosiy mazmuni, odatda, A.da o‘z ifodasini topgan. Bu qism mazmuniga ko‘ra turlicha bo‘lgan. Agar biror tantanali voqea munosabati b-n qutlov izhor qilingan bo‘lsa tahniyat, biron iltimos ifoda qilinsa istido’ deyilgan. Bu inshoning asosiy qismi bo‘lgani u-n butun inshoni shu qism nomi b-n atash ham uchraydi. M-n, qutlov, tabrik sifatida yozilgan inshoni tahniyat deb atash, shikoyat, axborot mazmunidagi maktublarni arzadosht deb atash va h.k. A. inshoning eng murakkab qismidir. Chunki o‘sha davr insho uslubiga ko‘ra muallifning muddaosi ko‘pincha pardali iboralarda, nozik ishoralar orqali izhor qilingan. Muallif bu qismda o‘zining butun mahoratini namoyish qilgan, turli san’atlardan foydalangan.

Buni “M.”dagi 10-maktub (10 jildlik “T.A.T.”dagi tartib bo‘yicha) misolida ko‘rish mumkin. Xatda mazkur qism “Arzadosht ulkim...” degan so‘zlardan “... yori aziz falonga muqarrar bo‘ldi” so‘zlarigacha bo‘lgan parchani o‘z ichiga oladi. Unda N.ning iltimoslari b-n birga uning yana bir muddaosi – adresat maqsadining amalga oshmayotgani munosabati b-n unga tasalli berish niyati ham o‘z ifodasini topgan va muallif buni juda katta mahorat b-n badiiy go‘zal

tarzda quyidagi jumlalar va misralarda amalga oshirgan: “Yana ulkim, talab bo‘stonida maqsud gullari kechroq ochilg‘ondin (maqsadning amalga oshishi kechikkanidan) ko‘ngul g‘unchasin xorxori malomat bila resh qilmoq munosib ermas (siqilish, malul bo‘lish kerak emas). Nedinkim, to taqdir chamanidin inoyat nasimi esib, mehnat xazonin ishrat bahorig‘a mubaddal qilmag‘uncha maqsud guli ochilmog‘ining imkoni yo‘qdur. Mundoq bo‘lg‘ondin so‘ng ta’jil sud qilmas va malolatdin g‘ayri malomat ish ochilmas.

Masnaviy:

Agar yuz qatla bulbul cheksun afg‘on,
Bahor o‘lmay gul ochilmoq na imkon.
Agar olamni tutsun shomi dayjur,
Tong otmay kun chiqarmoq kimga maqdur?”

Axborot yo‘sinida yozilgan xatlarning bu qismi bir muncha boshqacha bo‘lgan. Bunda, eng avvalo, maktub muallifi o‘ziga berilgan yozma yoki og‘zaki topshiriqni qisqacha eslatib o‘tgan. “Bu bandaga (bu zaifga yoki bu faqirga) falon vaqtda shunday farmoni oliy berilgan edi” qabilidagi so‘zlar b-n boshlab, keyin shu farmon yuzasidan nima ishlar qilganini bayon etgan. Agar vaziyat haqida ma’lumot berish talab qilingan bo‘lsa, shu xususda axborot bergan. Bunday hollarda uslub ham soddaroq bo‘lgan. Balandparvoz iboralar, imo-ishoralar, turli badiiy san’atlar qo‘llanmagan yoki kamroq qo‘llangan. Bu xususiyat, asosan, ish uslubida yozilgan insholar u-n xos. M-n, ana shunday maktublardan birida N. “Qulluq arzadosht ulkim”so‘zlaridan so‘ng darhol ahvol bayoniga o‘tadi va lo‘nda, qisqa ma’lumot beradi: “... mundag‘i holot Tengri taolo inoyati bila Mirzo davlatidin ko‘ngul tilagondektur. Bu uchurda Sulton Mahmud mirzo qoshidin Mahmud barlos kelib, peshkash va sochiq kelturub, qulluq xizmatgorlig‘larin izhor qildi. Yana atrof va javonibdin kelgan xabarlar dag‘i barchasi lavlatqa muvofiq erdi. Go‘stohliq yuzidin bir necha so‘z bitib, qog‘-az boshin yopushturub yiborildi”.

Ad.: *Алишер Навоий. Муншаот. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Эргашев Қ. Ўзбек насрида иншо. – Т., 2011; Эргашев Қ. Навоийнинг насрий услуби масалалари. – Т., 2022.*

Q.E.

AHLI BOTIN – ma’naviy hol sohiblari, Haq sirlaridan voqif kishilar, avliyo va tasavvuf ahli. Ahli hol – tasavvufiy hollarni yashashga erishgan va ulardan huzurlanmish oshiq, orif va darveshlar jamoasi. Ular tolib, murid, solik ham deyilgan. N. asarlarida A.B. fazilatlari xususida, ularning ma’naviy darajalari haqida so‘z yuritadi:

Fayzi qudsiy tilasang,
ko‘nglungga bo‘lg‘ay zohir,
Ahli botin qoshida so‘z dema aslo gustoh.

Botin – solikning siyrati, ruhi va ichki olami. Tariqat A.B.ini ziynatlashga harakat qilgan. Shu bois ahli zohir va A.B. deya ikkiga ajratishgan. Haq yo‘lchisi u-n botinga e’tibor muhim sanalgan. Va botin ahli irfoniy adabiyotda asosiy e’tibor qaratilgan shaxslardir. “N.M.”da bu xususda to‘xtaladi va Abu Abdulloh Dinavariy (q.s.) kabi valiylarning fikrlarini keltiradi: “ularning zohiriy liboslari seni taajjubga solmasin. Chunki botinni xarob qilganlaridan so‘ng zohirni ziynatlaydilar”. Shuningdek, A.B.lar alohida e’tirof etiladi. Chunki bu yuksak darajadir: “Bobo Sungu (q.s.) Zamon majzublaridin ermish. Andxud qasabasida bo‘lur ermish. Sohibi botin kishi ermish. Ramzlarin bilganlar natija topar ermish”

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlügü. – İstanbul, 1995; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва таъбироти ирфоний. Теҳрон, 1370 (ҳ.-ш.).*

E.O., Z.R.

AHLI VAJD – ishq va muhabbat ahli. Oshiq qalbida tabiiy bir ravishda tug‘iladigan ilhom, surur va tajalliylar vajddir. Hujviriy “Vajdning mohiyatini izohlamoq imkonsizdir. Zero, vajd

haqiqiy ko‘rish (kashf)dagi alamdurki, alamni qalam bilan tasvirlashning imkoni yo‘q”, deydi.

N. lirikasida vajd mohiyatidan xabar beruvchi, shuningdek, vajd holida yozilgan baytlar ham ko‘p:

O‘zni mast istar xarobot ichra vajd-u hol ila,
Gar Navoiyning bu dam dars ichra qiylu qoli bor.

“N.M.” tazkirasida ham A.V. haqidagi ma’lumotlar uchraydi. Vajd holining nafs tarbiyasidagi roli ko‘rsatiladi. Najmiddin Kubro haqida o‘qiymiz: “Va alarni Shayx Valitarosh ham debdurlar. Oning uchunki, vajd-u hol g‘alabotida muborak nazarlari har kimga tushsa, valoyat martabasig‘a yetar ermish”. Vajd holining yuksakligi Junayd Bag‘dodiy fikri b-n ham tazkirada dalillanadi: “Ilmning vajd-u holg‘a g‘olib bo‘lishi vajd-u holning ilmga g‘olib bo‘lishidan yaxshiroqdur”.

Huzun va muhabbatdan tabiiy ravishda oshiq qalbida tug‘iladigan ilhom holi. Vajd tavajjuhdan keyin yuzaga keladigan hol bo‘lib, qulning ixtiyor va’dasiga bog‘liq bo‘lmagan ravishda Allohdan kelgan bir fayz, lutf va ehsondir. Vajddan keyingi va undan yanada yuksalishni ifodalaydigan holning nomi Vujuddir. Vajd insonni ma’naviy hayajonga g‘arq qiladi. Vujud esa butunlay shuni unutish, o‘zdan kechish zaruratini paydo etadi. Bu hollarning tartib tarzi. N. “G‘.S”da bu haqida shunday deydi:

Zarq jomi birla vajd etgan erur ul tiflkim,
May debon rangin suni qilg‘ay ichib omda nishot.

N. “N.M.” tazkirasida vajd ahlining vajd xususidagi fikr-qarashlarini ham keltiradi: “Amr b. Usmon Makkiy (q.t.s.) “vajd kayfiyatini so‘z bilan ifodalab bo‘lmaydi, chunki u mo‘minlar nazdida Allohning sirridir”. Irfoniy adabiyotda har bir obrazning maqom martabasi bordir. Yoxud har bir holning o‘ziga xos rutbasi ma’lum. Xuddi shunday A.V.ning ham fazilati haqida “N.M.”da ma’lumot beriladi: “G‘aylon Samarqandiy (q.t.s.) debdurki, orif Tengridan Tengrig‘a boqar va olim dalildin. Va sohibi vajd dalildin mustag‘niydur”.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlügü. – İstanbul, 1995.*

Z.R.

AHLI DAYR – 1. Mayxona ahli, mayxonaga doim qatnovchilar. 2. Dunyo ahli, odamlar, insoniyat. 3. Majoziy: tasavvuf ahli – toliblar, soliklar, muridlar. N. she’riyatida ham A.D., asosan, majoziy ma’nolarda komillik matlabiga erishgan sohibdil kishilarga ishora qiladi:

Rindlar sarxayli mendurmen bugun dayr ahlig‘a,
Maykada tufrog‘idin masnad manga basdur sanad.

Yoki:

Ichkanda Navoiy may dayr ahlig‘a sur o‘lmish,
Solg‘il quloq, ey nosih, ul yonki ne unlardur.

Ad.: *Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2011; Асадов М. Соқийнома: тарих ва поэтика. – Т., 2020.*

M.A.

AHLI DARD – Haq oshiqlari. Haq diydoriga mushtoq soliklar. Umuman, oshiqlar. N. ijodida A.D.ning ta’rif-u tavsifiga bag‘ishlangan baytlar ko‘p uchraydi. M-n:

Ey Navoiy, dardlig‘ nazmingni dard ahli bilur,
Dardsiz dog‘i bo‘lur oni o‘qug‘och ahli dard

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011.*

E.O.

AHLI DIL – 1. Ko‘ngil sirlarini his va idrok etuvchi; g‘amxo‘r, sirdosh. 2. Ko‘ngil bergan oshiq. 3. Majoziy: Ko‘ngli ilohiy nur b-n munavvar kishilar. 4. Tasavvufda: ma’no ahli; ma’rifat ahli; sidq-u safo ahli; sohibdil; so‘fiy, orif, donishmand. Bu toifa sir sohiblari hisoblanadi. N.

ijodida ham A.D. timsoli ana shunday mazmunlarni yuzaga chiqaradi:

Ahli dillar, chehra ochdi yor –
ochmang diydakim,
Har kishi ul yuzga ko‘z oldurdi,
ko‘nglin oldurur

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011.*

E.O., Z.R.

AHLI ZOHIR – 1. Ulamo: islom ilohiyotchilari va faqihlar. “X.M.”da Imom Yusuf bin Abdulhusayn Roziyni kufrda ayblagan zohir ahli haqida Abdulloh Ansoriyning quyidagi fikrlari keltiriladi: “Agar hamul zamon makshuf bo‘lg‘on bo‘lsa, muning martabasi biyikdur. Va hol ulki, zohir ahli qoshida shon budurkim, birining martabasi biyikroq bo‘lg‘ay”. 2. Majoz yo‘lida qalam tebratuvchi shoirlar. “H.P.M.”da bu haqda ustozi N.ga shunday deydi: “Sayyid Nasimiyning nazmi o‘zga rang tushubdur, zohir ahli shuarosidek nazm aytmaydur, balki haqiqat tariqin ado qilibdur. Bu savolda sening g‘arazing majoz tariqida aytur el erdi”.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамсат ул-мутаҳаййирин. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005; Саййид Жаъфар Сажжодий. Фарҳанги истилоҳот ва табъироти ирфоний. – Теҳрон, 1370 (ҳижрий-шамсий).*

E.O.

AHLI VARA’ – Taqvodorlar, parhezgarlar. Man qilingan ishlardan chekinish vara’ deyiladi. Shu ma’noda vara’ zuhdning ibtidosi. Chunki vara’ shubhali ish va narsalarni, zuhd ehtiyojdan ortig‘ini tark qilishdir. U tavbadan so‘ng keladigan tariqat maqomlaridan biridir. Undan keyin zuhd, faqr, sabr, tavakkul, rizo kabi –maqomlar keladi. Shuning u-n tavba maqomi talablarini bajarmasdan vara’ maqomiga erishib bo‘lmaydi. Xuddi shuningdek, keyingi maqomlarda ham biridan ikkinchisiga o‘tish ayni shu tartibda davom etadi. N. she’riyatida A.V.ga ko‘p murojaat etilgan. M-n:

Aql der sol ko‘nglungga zuhd-u vara’ bunyodini,
Ishq aytur yo‘qturur bunyodi ul bunyodning.

N. taqvoli, parhezkor kishilarni ahli vara’ deb ataydi.

Halol bo‘ldi xaroboti ishq ahlig‘a may,
Tutarbiz ahli vara’, kimki oni tutsa muboh.

“N.M.”da valiylar fazilatlaridan so‘z ochar ekan, ularning A.V. ekanini ham alohida e’tirof etadi: “Muhammad va Ahmad b. Abulvard (r.t.) Sariy Saqatiy bila va Abulfath Hammol va Horis Muhosibiy bila va Bishr Hofiy bila suhbat tutubdurlar. Va alar tariqi vara’da yaqindur Bishr Hofiyg‘a” yoki Olim b. Sa’d (r.t.r.) haqida shunday deydi: “Bag‘doddin erdi. Va Abu Muhammad Jaririy bila suhbat tutub erdi va vara’ va mujohadada komil erdi”.

N.ning uqtirishicha, bir och kishiga taom berish bu vara’ga (parhezkorlikka) kirmaydi.

Kim to‘ma topmas etkali iftor-u ro‘zadur,
Ermas vara’, bir ochqa g‘izo bazlidur vara’.

“D.F.”da sharobga (ilohiy ishqqa) parhezkorlik qarama-qarshi qo‘yilgan o‘rinlar juda ko‘p uchraydi. Jumladan:

Oluda xirqayi vara’ az jomi bodayem,
In ast hol to ba sharob uftodayem.

Tarj.: Vara’ (parhezkorlik) xirqasini jom bodasi (may) bilan bulg‘adik, sharob ichishga tushganimizdan beri hol shundaydir.

N. vara’ga bog‘lab, yangi so‘zlar qo‘llaydi. “F.Sh.” dostonida vara’kesh ya’ni parhezkor, taqvodorga xos bo‘lgan munojot qilish odatiga ishora qiladi:

Qadahchashqa xarobot o‘ldi marqum,
Vara’ kashg‘a munojot o‘ldi maqsum.

Vara'u zuhd – parhez va zohidlik; Vara' mulki – parhezkorlik maqomi, tariqi vara' – vara' yo'li, vara'pesha – parhezkorlik kabi tushunchalar uning nasriy asarlarida ko'zga tashlanadi. "... va alar (Muhammad va Ahmad bin Abulvard (r.t.) (S.R.) tariqi vara'da yaqindur Bishr Hofiyg'a). (Abulabbos Hamza b. Muhammad (q.s.) Hirot mashoyixining mutaqaddimlaridindur. Vara'da komil va mustajobud-da'va erdi va azim saxovati bor erdi). Ul (Ibrohim b. Shaybon Kirmonshohiy (q.s.) debdurki, otam manga vasiyat qildiki, ilm o'rgan, zohir odobi uchun va vara'pesha qil, botin odobi uchun".

Ad.: *Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик, 3-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Девони Фоний. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик, 1-3-жилдлар. – Т., 1983; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва табъироти ирфоний. – Теҳрон, 1370 (ҳ.-ш.); Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005; Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. – Душанбе, 1987.*

Z.R.

AHLI JUNUN – junun ahli, ya'ni ishqdan savdoyi, umuman, oshiqlar. N. bir baytida o'z nazmi xususida shunday deydi:

Navoiy nazmidurur yaxshi, gar quloq solsang,
Tarannumeki qilur o'zi birla ahli junun.

Mazkur misralar N. she'rlarining o'quvchilari A.J. ekanligi, shoir lirikasida oshiqona g'azallar katta o'rin egallashini ko'rsatadi. N. ham nazmining shu toifa o'qishidan iftixor tuyadiki, A.J. deganda haqiqiy ishq sohiblari nazarda tutiladi. Shu bois A.J. ko'ngil egalari ma'nosida ham keladi:

Xiradqa bizni targ'ib etma, ey shayx,
Bu ishdin tut junun ahlini ma'zur.

N. A.J. deyish b-n kifoyalanmay, junun eli birikmasini ham qo'llab, yana-da bu zumra xususidagi tasavvurlarni tiniqlashtiradi:

Junun eli shahimen, tog' avji taxtimdek,
Qush oshiyonlari boshimning afsari yanglig'.

N. asarlarida, xususan, lirikasida A.J. b-n oshiqlarda maqsad va holda begonalik yo'q. Aksincha, shoir o'zini shu elning shohi sanaydi.

Devonlarda N.ning jununvash hol sohibi ekanligi chuqurroq anglashiladi. Va shoir g'azallarida A.J.dan ekanligiga rangin ifodalarda takror-takror iqror bo'ladi:

Eyki, dersen nuktayi ishq-u junun ahlidin ayt,
O'z fasonam, yo'qsa Majnun dostoninmu deyin?

G'azallarda dard, balo va jununlik oshiqlikda go'yo birlashadi. Ular mazmun-mohiyatda bir-birini to'ldiradi:

Istasang dard-u junun, ochib Navoiy daftarin,
Telbalik sharhini topib, holi zoridin o'qu

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005. Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. – Душанбе, 1987. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Т., 1983.*

Z.R.

"AHLI MA'NI GURUHIDA..." – N.ning "N.Sh." devonidan o'rin olgan qit'asi.

Ahli ma'ni guruhida zinhor,
Hech or aylama gadolig'din.
Kim bularg'a gadolig' ortig'dur,
Ahli suratqa podsholig'din.

"Suvrat ahli" deb har bir narsaning tashqi ko'rinishiga qarab, unga yuzaki munosabatda bo'ladigan kishilarga; "ma'no ahli" deb narsa va hodisalarning sababi, natija va oqibatlarini o'ylab oqilona munosabatda bo'ladigan shaxslarga aytiladi",– deydi prof. A.Rustamov.

Ahli ma'ni – fikr odamlari. Fikrsiz xaloyiqning ongida ma'ni chuqurligi bo'lmaydi. Fikrlash – haqiqatni anglash ehtiyojidir. Bu ehtiyoj

hamma narsa to‘g‘risida mustaqil mushohada yuritmoq zaruratini tug‘diradi. Mana shundan axloqiy uyg‘oqlik boshlanadi, odam va olam taqdiriga vijdon nazari b-n qaray olish qobiliyati shakllanadi. Ahli ma’ni guruhiga mansub bo‘lmoq – bu, oqil va dono, kamtar va oliyjanob, haqiqatsevar va fidoyi bo‘lmoq, deganidir. Bunday fazilatlarga ega zotlarning yig‘ini tafakkur bazmiga o‘xshaydi. Chunki unda aql oddiy so‘z va tushunchalardan emas. Diyonat, Adolat, Insof, Imon, Ishq, Dard tuhfalaridan bahra oladi. Mana shuning u-n N. ahli ma’ni guruhida gado bo‘lishdan hech or aylamaslikka chaqirgan. Va:

Kim bularga gadolig‘ ortug‘dur,
Ahli suratqa podsholig‘din, –

deya oldingi gapini ta’kidlagan. Bu da’vatning zamirida fikr kishilarining qismati u-n qayg‘urish ham bor. Ahli surat – zohirparast sayoz zotlardir. Bular orasiga kirilgani hamon nodonlikning qo‘lansa hidlari dimoqqa urilishi, ma’nisiz nigohlaridan yurak siqilishi mumkin.

N. doimo haqdir: “ahli surat”larga shoh bo‘lguncha ma’ni ahli yig‘inida gado bo‘lmoq ming karra afzaldir

Ad.: *Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Ҳаққулов И. Касби камол ўзни танишдир. – Т., 2021.*

I.H.

AHLI MA’RIFAT (Ahli irfon) – oriflar, Haqni mushohada qiladigan kishilar. Bu toifa hech kim va hech narsaga parvo qilmay, ajib bir olamda yashaydilar. N. she’riyatida A.M. talqiniga oid baytlarga ham ko‘p duch kelamiz. M-n:

Ahli irfon soliki atvori ul,
Ma’rifat bozorining Attori ul.

Yoki:

Faqr ila shod o‘lki, har kim bo‘lsa ahli ma’rifat,
Dahr tufrog‘ birla teng bo‘lmoq ne imkon ollida

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва табъироти ирфоний. – Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.); Луғати Муъин. Як жилди комил. – Теҳрон, 1388 (ҳ.-ш.).*

M.A.

AHLI MUHABBAT – butun olam va borliqni sevgan, ilohiy jamol va kamolning mazhari hisoblab, barcha insonlarga muhabbat nazari b-n boqadigan kishilar. Haq oshiqlari bo‘lganliklaridan ular jumla jahonda Haqning jilvasini ko‘radilar. A.M. Haq diydorini ko‘rish orzusida umid b-n yashaydilar. N. ijodida A.M.ning bir-biridan go‘zal ifodalari mavjud. M-n:

Gar o‘lsa ahli muhabbat Navoiy, ey hamdam,
Vafo kerak anga qilg‘on soyi jafo mahbub

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва табъироти ирфоний. – Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.).*

E.O.

AHLI NAJOT VA AHLI HALOK – N. “H.A.” dostonida olam ahlini ikkiga bo‘ladi: A.N. va A.H.:

Olam aro xalqni Yazdoni pok
Ahli najot etti-yu, ahli halok.

Shoir g‘azaliyotida bu bo‘linish qabul ahli va rad ahli tarzida uchraydi. Dunyoni faqat rad ahli qabul qiladi, deydi u:

Ey Navoiy, qildilar dunyoni rad ahli qabul,
Gar desang maqbul o‘lay, yor o‘lma bu mardud ila.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011.*

E.O.

AHLI NAZAR – haqiqatga aql vositasida yetish mumkin, deb hisoblaydigan kishilar. N. ijodida ham shu mazmunda qo‘llangan. M-n:

Gar bebasarliq aynidin nargis
ko‘zungdin lof urar,
Ahli nazar anglarkim, ul ham ko‘r erur,
ham bad alaf.

Ad.: *Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy. TAT. 10 jildlik, 1-4-jildlar. – T., 2011; Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005.*

M.A.

AHLI NIYOZ – shariat ahkomlari va tariqat arkonlariga ko‘ra harakat qiladigan kishilar. N. she’riyatida A.N. timsolidan ham keng istifoda etilgan. M-n:

Tuzmasa mehrobini ahli niyoz,
Egri boqib, rost emasdur namoz

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. TAT. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – T., 2011; Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005.*

E.O.

AHLI NUJUM – munajjimlar. N. “M.Q.” asarining birinchi qismi yigirma beshinchi fasli “Ahli nujum zikrida” deb nomlanadi. Bunda N. A.N.ni sayyora va yulduzlarni kuzatib, hukm chiqaradigan, lof uradigan folbinlarga o‘xshatadi. Hatto o‘zlarining turli asboblariga ishonib, hukm chiqaruvchi munajjimlarni Haqning qazo va qadarini unutgan qavmlar sirasiga kiritadi: “Kazib al-munajjimun” mazmuni bila aning so‘zi yolg‘ondur va o‘zi rostlig‘ kishvaridin yiroq qolg‘ondur va basirat ko‘ziga g‘aflat pardasin solg‘ondur”, – deya, falak va yulduzlarning holati foyda va zararni belgilashini faqat Alloh bilishi, munajjimlar esa bu bilimga qodir emasligini anglatuvchi baytni keltiradi:

Emas aflok-u anjum holi benaf’u zarar, lekin
Ani Tengri bilur, ermas munajjim bilmagi mumkin

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. TAT. 10 жилдлик, 9-жилд. – T., 2011.*

Z.R.

AHLI RIZO (Rizo ahli) − rizo maqomini o‘tib, Haqqa bo‘ysungan va undan keladigan hamma narsani mamnuniyat b-n qabul qiladigan va o‘zi ham Haqni rozi qilishga ahd qilgan ilm-u axloqda yetuk insonlar, shayx-u so‘fiylar, valiylar. O‘zlarini Alloh yo‘liga bag‘ishlagan bu toifani dunyo tashvishlari zarracha qiziqtirmaydi. Ular amalga intilmaydi, davlatga ham berilmaydi, siyosatdan qo‘rqmaydi. Shuning u-n ham N. yozadi:

Rizo ahlin siyosat tig‘idin qo‘rqutmagil,
ey shah −
Ki, qatlingdin sening qo‘rqarg‘a
o‘lmaydur gado asru.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. TAT. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – T., 2011; Очилов Э. Бир ҳовуч дур. – T., 2011.*

E.O.

AHLI RIYOZAT – chilla o‘tirish, nafsini qiynoqqa solish yo‘li b-n kamolotga erishishga ishonganlar. A.R. – Tasavvufda mashaqqat tortib, ranj chekib, oz yeb, oz so‘zlab, oz uxlab va xilvatga chekinib, chilla o‘tirib, mashaqqatlarni tortib, nafsini tarbiyalagan, nafsning hoy-u havaslaridan, behuda istaklaridan voz kechgan kishilar. Riyozat – mashq, tarbiya va qiyinchiliklar tortish degan ma’noni bildiradi. So‘fiylikda tariqat yo‘lidagi mashaqqatlar, ibodatlar anglashiladi. So‘fiylar oz yeb, kam gapirib, kam uxlab, uzluksiz zikr va tafakkur qilishga odatlangan nafsning poklanishiga, o‘z tabiatidagi yomonliklardan xalos bo‘lishiga ishonadilar. Nafsni tarbiyalash u-n ba’zan uni qiyin va og‘ir ishlarga boshlaydilar. Bir teri qayta ishlanmasdan oldin kir, qayta ishlangandan keyin esa toza bo‘lgani

kabi nafs ham mujohada va riyozatdan avval kir bo‘ladi, keyin tozalanadi. Qur’oni Karimdagi: “Bas, kimki *nafsini gunohlardan* toza *(pok)* qilsa, u najot topdi. Va, bas, kimki *nafsini gunohlarga* oluda qilsa *(bulg‘asa),* xor etdi *va o‘z nafsiga* ziyon qildi (“Shams” surasi, 9-10)” oyati shunga ishora qiladi. Iztirob chekish, qirq kun chillada o‘tirish, safarga chiqish, yolg‘izlikka chekinish riyozat shakllaridandir. Hujviriyga ko‘ra, “Nafs itdir. U ovlagan narsa halol bo‘lishi uchun nafsining tarbiya qilinishi shart”. Riyozat (tarbiya) qilganlarga A.R. deyiladi. Riyozat natijasida solik nafsiga hokim bo‘ladi, tuban istaklarini jilovlaydi, o‘zini tartibga soladi.

N. “G‘.S.” devonida suv b-n murdor pok bo‘lmaganidek, shariatdan tashqarida bo‘lgan riyozatning ham foyda bermasligini uqtirib o‘tadi:

Shar’din ayru riyozatdin safo kasb aylagan,
O‘yladurkim sof o‘lur taskin bila murdor su.

Ulug‘ shoir “N.Sh.” devonida esa riyozatsiz ko‘ngulga safo yetmasligini, kulbani (ko‘ngulni) ravshan qilish u-n hasrat suvidan ro‘za tutish kerakligini aytgan:

Ey Navoiy, ko‘nglunga yetmas riyozatsiz safo,
Kulba ravshan istasang hasrat suyidin ro‘za och.

N. “M.N.”da ayrim forsiy va turkigo‘y shoirlarning o‘z maqsadlari yo‘lida riyozatlar chekkanini qayd etib o‘tadi. M-n, hazrati Mir Qosimning “xalifa va farzand va mahbub masobasida”-da bo‘lgan Mir Maxdumning “tarbiya va takmiliga” mashg‘ul bo‘lgani va unga “azim riyozatlar buyurgani”ni, Mavlono Binoiyning “faqr tariyqin ixtiyor” qilgani va “riyozatlar ham tortgani” haqida ma’lumot beradi. U “M.Q.” asarida ham riyozat so‘zi orqali so‘fiyona ma’nolarga ishora qilgan: “...va otang avlodidin ba’zi anga intiqom tuzdilar va xor-u zabun qilib jafolar ko‘rguzdilar. Nafsni chun taqvo riyozati bila zerdast qildilar – shaytonni zalilliq bila yerga past qildilar”. Mazkur asarda Abdulloh ibn Muborak haqida yozadiki, “...andoq riyozat va sulukka rosix bo‘ldikim, oz vaqtda Makka va Madinada shayx ul-mashoyix bo‘ldi”. A.R. so‘zi eng ko‘p N.ning “N.M.” asarida, asosan, so‘fiyona mazmunda keladi. Shu b-n birga qiyinchilik va mashaqqat ma’nolarida ham kelgan. M-n, “Sen nevchun o‘zungni bu riyozat va ranjg‘a solding?”

Bulardan tashqari N.“riyozat favoyidi”, “xilqati riyozat”, “riyozat tariqi”, “taqvo riyozati” kabi iboralar orqali ham o‘ziga xos ma’nolar yaratishga erishgan.

“L.T.” dostonidagi qushlar ham A.R.dirlar. N. ushbu asarida riyozat ko‘rinishlari va solik riyozatining oqibatlari haqida to‘xtaladi:

Garchi bu so‘zda ayondur ta’miya,
Kim riyozatdinki topti tasfiya,

Chun riyozat raf’ etib ruhoniyat,
Salb bo‘lg‘och kimsadin nafsoniyat.

Qolmag‘ay ruhoniyatdin o‘zga hech,
Sen taxallufdin bu ma’ni ichra kech.

Umuman, ma’lum bir usul-u arkon asosida Haq yo‘lida nafsini poklashga jiddu jahd etganlar A.R. deyiladi. N. “H.A.” dostoni to‘rtinchi maqolatda: “riyo ahli bo‘lgan kozib shayxlarga qaramaqarshi qo‘yilgan “... haqiqiy bodano‘shlar ravishidakim, xirqa-i vujudlari fano ilgi zo‘ridin chok durur va Masihodek jonbaxsh nafaslari ruhi muqaddas kibi pok va mahalli tavflari sohati aflok...” deya ta’riflangan ahli dillarni A.R. deb ataydi:

Ahli riyozatdin atab birini,
Biriga deb voqea ta’birin.
Voqea gar xud anga yolg‘on debon,
Ul dog‘i ta’birini hazyon debon

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ.*

10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005.

E.O.

AHLI SAVMA'A – savma'a, ya'ni ibodatxona (ko'proq nasroniylar ibodatxonasi)da istiqomat qiluvchilar. Oriflar istilohida moddiy bog'liqliklarni tark etishga ishora qilinadi. A.S. xalqdan uzilib, Haqdan panoh tilagan kishilar hisoblanadi.

Holi maoli durdkashon garchi shud nihon,
Ahvoli ahli savma'a ham oshkora nest.

Tarj.: Durdkashlar holining oqibati agarda pinhon qolgan bo'lsa, A.S.ning ahvoli ham oshkor bo'lgan emas.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва табъироти ирфоний. – Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.).*

E.O.

AHLI SALOMAT – oriflar tilida xalqni tark etib, Haqqa yuzlangan hamda rohat va osoyish topgan kishilar. Lekin N. bu istilohni, asosan, ishq dardiga chalinmagan, ishq dardi b-n og'rimagan, demakki, sog'-salomat kishilar ma'nosida qo'llaydi:

Odamiylig'din qochib,
yettim junun o'tin sochib,
Ey salomat ahli, aylang telba itdin ehtiroz

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва табъироти ирфоний. – Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.).*

Z.R.

AHLI SULUK – soliklar; sulukka kirgan, tariqat bosqichlarini bosib o'tayotganlar. Ularni 2 guruhga ajratadilar: Haq muhiblari va oxirat talabgorlari. Bobo Tohir A.S.ni olim, murid va orif deb 3 toifaga bo'ladi. orif Haqni izlaydi, olim ilm talabida bo'ladi, murid esa maqsad yo'lida jidd-u jahd ko'rsatadi. Suluk jarayonida odamlar yana 3 tabaqaga ajraladilar: jahd va riyozat ahli; hifz va siyosat ahli; Haq va inoyat ahli. Birinchi tabaqa toat-ibodatga jiddu jahd ko'rsatib, riyozat chekadilar; ikkinchi tabaqa o'z hol va maqomlarining tarbiyasi b-n shug'ullanadilar va Haq yo'lida nafslarini qiynoqqa soladilar; uchinchi tabaqa Haq tomonidan tanlangan kishilar bo'lib, ilohiy inoyat maqomiga muyassar bo'ladilar.

Ey suluk ahli, qachon maqsud
topqumdur desang,
Mosivallohni fano ko'rgan kuni mi'od bil.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва табъироти ирфоний. – Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.); Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005.*

E.O.

AHLI TAVHID (Ahli vahdat) – muvahhidlar, oriflar; vahdati vujud tarafdorlari. Allohni bir deb biladigan va yagona Allohga e'tiqod qiladigan kishilar. Aziziddin Nasafiyning yozishicha, bu toifa barcha hijoblardan xalos bo'lib, mushohada yo'li b-n Haqqa yetishganlar va uning diydoriga musharraf bo'lganlar. Ular ilm ul-yaqinni bilganlari u-n ayn ul-yaqindan ham ogoh. Shuning u-n ham bu toifani A.T. (A.V.) deydilar. Chunki ular Xudodan o'zgani ko'rmaydilar ham, bilmaydilar ham va faqat Xudoni biladilar-u Xudoni ko'radilar.

Inson kamolot yo'lida bir umr sayr-u safardadir. Kamolga yetishi b-n uning safari nihoyasiga yetadi. Lekin bu toifa nazdida, inson kamolotining chek-chegarasi yo'q – u maqomdan maqomga yuksalgani sari avvalgi maqomining noqisligini ko'radi.

Ey musallam zotingga tavhidi pok,
Ahli vahdat oytib oni zavqnok.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Фарҳанги забони тожики. Жилд 1. – М., 1969; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва табъироти ирфоний. – Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.); Азизиддин Насафий. Зубдат ул-ҳақойиқ (Н.Комилов тарж.). – Т., 1995.*

E.O., M.A.

AHLI XILVAT – odamlardan uzilib, bir go‘shada makon tutgan va Xudo zikri va toati b-n mashg‘ul kishilar. Buning o‘ziga xos sharoiti va odobi bo‘lib, kam yeyish, kam gapirish, ro‘za tutish, toat-ibodat qilish, tahoratni kanda qilmaslik, Xudo zikridan xoli bo‘lmaslik, dunyo ne’matlari va nafs lazzatlarini tark etish shular jumlasidandir. Ba’zilarning fikricha, xilvatning muddati 40 kun bo‘lib, uni chilla deydilar, ba’zilar esa muddat tayinlamaganlar. Xilvatda ular dunyoviy bog‘liqliklardan tamomila uzilib, butun diqqat-e’tiborlarini Haqqa qaratadilar va g‘aybiy haqiqatlar o‘zlariga ayon bo‘lishidan umid qiladilar.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Сажжодий С. Ж. Фарҳанги истилоҳот ва табъироти ирфоний. – Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.).*

E.O.

AHLIY SHEROZIY – Muhammad Ahliy Sheroziy (1454–1535/36, Sheroz). Shoir va sozanda. Yoshligida Hirotga kelib, Husayn Boyqaro saroyida bo‘ldi, keyinchalik tug‘ilgan shahariga qaytdi. A.Sh.ning 6000 baytdan iborat devon (g‘azallar, qasidalar, tarkibband, tarje’band, qit’alar, muxammas, mustazod va boshqa she’ri) “Sham-u parvona”, “Zubdat ul-axloq” (axloqqa oid ruboiylar) asarlari va soqiynomalari (120 bayt) hamda Kotibiyga javob tarzida yozilgan “Favoyid ul-favoyid” asarlari bor. A.Sh. qalamiga mansub N. madhida yozilgan qasidayi masnu’ yetib kelgan. N. “M.N.”da A.Sh. she’riy iqtidoriga yuqori baho beradi. N. yozadi: “nazmlardin har sinf she’rda mahoratlig‘ kishidur, bataxsis qasida uslubida”.

A.Sh. Salmon Sovajiy (q.)ning “masnu’” qasidasi (q.)ga yozgan javobiga bir ruboiy qo‘shib N.ga yuborgan ekan. A.Sh.ning Shoh Ismoil Safaviy madhida yozgan qasidasi ham mavjud.

A.Sh.ning qasidalari nihoyat darajada murakkab texnik yo‘llarda yozilgan. Ularda behisob poetik figuralar ishlatilganidan tashqari 8 martagacha boshqa tuzib chiqish, arab va fors tillarida o‘qish mumkin bo‘lgan. She’r mazmuni esa bir-biridan farq qilgan. Shoir she’rlarida uning anchayin qashshoqlikda hayot kechirgani o‘z aksini topgan. A.Sh. “panjchohi rost” usulida turk zarbi b-n musiqiy asar yaratgan. Uning bir qancha musiqaviy naqsh va savtlari ham bor.

A.Sh.ning “Sihriyi xalal” dostoni (erining jasadini kuydirish gulxaniga o‘zini tashlagan hind ayoli haqida) nihoyatda murakkab shaklda (har bayti ikki vaznda o‘qiladigan, qo‘sh qofiyalar tajnisli) yozilgan. Bunday o‘ta murakkab san’atga rioya qilish o‘z-o‘zidan mazmunning aniq va ravshanligiga putur yetkazgan. Xondamir “Makorim ul-axloq”da A.Sh.ning “Qasidayi masnu’” asari N.ga bag‘ishlanganini yozadi

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Бертельс Е.Э. Навои и Джами. – М., 1965; Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Кобул, 1981.*

S.G‘.

AHLI SHUHUD – ahli mushohada, ahli kashf. Haqqa Haq bo‘lgani u-ngina bandalik qilgan va har ashyoda uning tajalliysini ko‘rgan va his qilgan orif va komil insonlar. Aziziddin Nasafiyning yozishicha, bu toifani xos ul-xos (xoslarning xosi) deydilar. Chunki ular kashf va a’yon vositasida Xudoning mavjudligi va yagonaligini tillari b-n e’tirof etib, dillari b-n tasdiqlaydilar. A.Sh. barcha hijoblardan xalos bo‘lib, Haqni mushohada qilish darajasiga yetishganlar va Haq diydoriga musharraf bo‘lganlar. Bu ta’li-

motning mohiyati shundan iboratki, so‘fiy nimaga boqmasin, o‘sha narsaning o‘zini emas, balki unda Haqni ko‘radi. Chunki vahdat ush-shuhudning o‘zi hamma narsa Allohdan degan ma’noni bildiradi.

Shuhud – ko‘rmoq, mushohada qilmoq, tomosha qilmoq. Boshqa tarafdan shuhud shohidlar, guvohlar so‘zining ko‘pligidir. Tasavvuf ta’limotida Haq Taoloni Haq b-n ko‘rmoq, ilohiy tajallilarni, ma’no olamini tomosha qilmoq. Kasrat (ko‘plik)ni vahdat (yakkalik, tanholik)da ko‘rmoq. Muxtasarni (qisqani) mufassal (kenglik)da mushohada etmoq: Ahadiyat (yakkalik)ni kasratda (ko‘plikda) ko‘rmoq.

Shohid – har yerda Allohning hozir-u nozirligiga guvohlik beruvchi, e’tiqod qiluvchi orifdir.

N. “L.T.”dagi tamsillaridan birida keltirishicha, komil bir inson Allohga munojot qilib, uning abadiyligi va qadimiyligini e’tirof etadi. Yaratuvchidan vasl yo‘lida o‘z vujudini shunday bir foniy qilishini istaydiki, unda vujudidan biror nishona qolmasin, faqat Xudoni mushohada qilishgina qolsin:

Kim, anga yo‘l topmag‘ay rangi vujud,
Qolmag‘ay vasl ichra juz komi shuhud.

Ulug‘ shoir bir baytida mushohada va shuhud so‘zlari orqali ishtiqoq san’atini qo‘llab, jamol mushohadasiga g‘arq bo‘lgani va bu mushohadani hijron aslo ketkaza olmasligini ta’kidlab o‘tgan:

Yuzung mushohadasi qilmish o‘yla mustag‘-
raqki, hajr salb qila olmas ul shuhudumni.

N.ning ba’zi nasriy asarlarida mashhud, shuhud va mushohada so‘zlari orqali tasavvufiy ma’nolar bayon qilingan. “Va ul mushohada bexudlig‘ida alardin shuur, alardin maslub. Shuhudlari istig‘roqqa yetgan va ul istig‘roqdin istihloq maqomin hosil etgan” (M.Q.). “...qayon boqsalar ofarinish g‘aroyibin mushohada qilurlar va Mubdi’i korsoz va Muxtare’yi bandanavoz sun’ig‘a ofarin ayturlar (S. I.).

N. “A.” asarining yozilish sababiga to‘xtalar ekan, A.Sh.ni guvohlar, shohidlar ma’nosida qo‘llagan:

“Arba’in”e chiqardikim, jonlar
Balki qirq arba’in chiqorg‘onlar.
Toptilar anda nash’ayi maqsud,
“Arba’in”din nechukki, ahli shuhud

Ad.: *Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик, 3-жилд. – Т., 1984; Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Арбаъин. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва табъироти ирфоний. – Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.).*

E.O.

AHLI EHSON – ehson martabasiga erishgan Allohning muqarrab qullari. Ular “Allohga xuddi Uni ko‘rib turgandek, agar sen Uni ko‘rmasang, U seni ko‘rib turgandek ibodat qilish” huzur maqom martabasiga erishgan solih bandalar hisoblanadi. Tasavvufdagi *Ehson maqomi* va ilm olish odobi, shuningdek, shariat va tariqat maqomlarini belgilashdagi asos quyidagi hadisdan ma’lum bo‘ladi. Abdulloh ibn Umar ibn Xattob “Otam Umar ibn Xattob menga ushbu hadisni aytgan”, – deya rivoyat qiladi: “Bir kuni biz Rasulullloh (s.a.v.)ning huzurlarida edik. Birdan ustimizda oppoq kiyimli, sochlari qop-qora odam paydo bo‘ldi. Unda safarning asari ko‘rinmas edi. Uni birortamiz tanimas ham edik. U kelib “Rasulullloh (s.a.v.)ning to‘g‘rilariga o‘tirdi. Ikki tizzasini u zotning tizzalariga tiradi. Ikki kaftini sonlari ustiga qo‘ydi va: “Ey Muhammad, menga *Islom* haqida xabar ber”, – dedi. Rasulullloh (s.a.v.): “Islom – “Laa ilaaha Illallohu Muhammadur Rasulullloh”, deb shahodat keltirmog‘ing; namozni to‘kis ado etmog‘ing; zakot bermog‘ing; ramazon ro‘zasini tutmog‘ing; agar yo‘lga qodir bo‘lsang, Baytni haj qilmog‘ing”, – dedilar. “To‘g‘ri aytding”, – dedi u. Biz undan ajablandik: o‘zi so‘raydi, o‘zi tasdiqlaydi. “Menga *Iymon* haqi-

da xabar ber”, – dedi. Ul zot (s.a.v.): “Allohga, Uning farishtalariga, kitoblariga, nabiylariga va oxirat kuniga iymon keltirmog‘ing”, – dedilar. “To‘g‘ri aytding”, – deb tasdiqladi va: “Menga *Ehson* haqida xabar ber”, – dedi. Ul zot (s.a.v.): “Allohga xuddi Uni ko‘rib turgandek, agar sen Uni ko‘rmasang, U seni ko‘rib turgandek ibodat qilmog‘ing”, – dedilar. ...So‘ngra u g‘oyib bo‘ldi. Ul zot (s.a.v.) menga: “Ey Umar, so‘rovchi kimligini bildingmi?” – dedilar. “Alloh va Uning Rasuli bilguvchiroq”, – dedim. Ul zot (s.a.v.): “Albatta, u Jabroildir. Sizlarga dinlaringizdan ta’lim bergani kelibdi”, – dedilar. Ko‘rinib turibdiki, Allohning elchisi tizzama-tizza o‘tirib anglatgan Ehson odamning qalbi b-n bog‘liq, ko‘ngil ila amalga oshadigan hodisadir. Bu ko‘ngil sohiblari istagan maqomdir. Ya’ni, tariqat ahli zohir amallarining har birini qalbi b-n ham ado etishga harakat qilgan. Vujudini suv b-n tozalarkan, Allohdan g‘ayrini chiqarib tashlash ila qalbini ham poklagan. Ko‘zini zinodan asrar ekan, ko‘nglini ham nopok o‘ylardan xalos etishga harakat qilgan. Uning zakoti nafaqat moli, balki joni b-n bo‘lgan va h.k. Natijada, ular A.E. sanalgan. Boshqa ilmlardan farqli o‘laroq, ularning ma’rifati vujud poklanishi, ruhga tegishli hikmat hisoblanadi. N.ning ko‘plab qahramonlari mana shunday rutbaga erishgan. Uning nafs mujodalasida shariat, tariqat, ma’rifat va haqiqat bosqichlarini munosib bosib o‘tgan Haq yo‘lchilari ko‘p. Islom – zohir, imon – botin, ehson esa haqiqatdir, deya tasniflashgan.

A.E. saxovatli kishilar ma’nosida ham keladi. Zero, ehson qilish ulug‘ ma’naviy daraja hisoblangan. Avvalo, komil ehson sohibi Alloh taolodir.

Lutf-u ehsoningg‘a yo‘q poyon-u had,
Baxshish-u ehsoning‘a son-u adad, –

deydi N. Ehson qilish go‘zal axloqdan, A.E.lar ma’naviy olam tuzumini mustahkamlovchi solih qullardir. Shu bois N. “M.Q.” asarida 9-tanbehni ehsonning mohiyati va insonlar hayotidagi rolini ko‘rsatishga bag‘ishlagan: “Yana bir amri azim ehsondurkim, aning bayonida ko‘p so‘z ayondur. “Al-inson-u abid ul-ehson (Inson yaxshilik-ehsonning quli)” anga dol va “hal jazo ul-ehson illal al ehson (Ehsonning mukofoti ham ehson)” anga guvohi hol. Jami’ mazohib va milal ahli qoshida sobitdurkim, yaxshiliq jazosi yo‘qtur – bajuz yaxshiliq va nubuvvati lison mo‘jaz bayonig‘a dag‘i bu ishorat o‘tubdurkim, “Ahsin kama ahsanallohu ilayka” ul Hazrat mundoq amr etibdurki, yaxshilik yetkur andoqkim, Tengridin sanga yaxshiliq yetibdur”.

N. nazdida, ehsondan ulug‘ saodat martabasi yo‘qdir. Shuning u-n asarlarida A.E.lardan bo‘lishga da’vat qiladi:

Kishida barcha axloqi hamida,
Chu jam’ o‘ldi qo‘yarlar otin ehson.
Biri andin saxodur, bir muruvvat,
Bular gar yo‘qtur, inson ermas inson

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи васаллам. Таржимон: Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. – Т., 2011.*

Z.R.

AHLI YAQIN – yaqin (ishonch; haqiqat) Haqqa yaqin maqom va manzillardan biri hisoblanadi. Shuning u-n A.Y.ni yaqinlik hosil qilganlar, ishonchga sazovor bo‘lganlar ma’nosida muqinlar ham deydilar. Bu – ulug‘ hakimlar va oliy ulamolar maqomi va martabasi.

Ne ma’ni ko‘rdilarkim,
suratingg‘a bo‘ldilar vola,
Chu ma’ni olamida istamas ahli yaqin surat

Ad.: *Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва таъбироти ирфоний. – Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.).*

E.O.

AHLI HAQ (AHLI HAQIQAT) – rost va to‘g‘ri yo‘l odami, Haq yo‘lchisi, haqiqatga

erishganlar toifasi, ma'rifat sohiblari va haqiqat toliblari, oriflar, Haq kishisi, Haq eranlari. Shayx Shibliy aytadi: A.H. ma'rifat qanotida Haq sari parvoz qiladilar va muhabbat vositasida unga ishorat etadilar. Bahouddin Naqshband aytadi: "Haqiqat ahli iymonni mundoq ta'rif qilibdurlar: "Iymon – qalbni Allohdan boshqa o'ziga rom etuvchi foydali va foydasiz narsalardan uzib, Haqqa bog'lashdir". Kimlar ahli Haq, ahli haqiqatlar hisoblanishi, bu maqomga yuksalish yo'llaridan N. janr talabidan kelib chiqqan holda, deyarli, barcha asarlarida izoh beradi. Jumladan, "N.M." tazkirasida Najmiddin Kubro b-n bog'liq rivoyatda uning o'z tilidan keltirilishicha, Shayx Ro'zbexonni izlab Misrga borganida uning shariatda joiz bo'lmagan ozgina suv b-n tahorat olayotganni ko'rib, ko'ngliga shubha oralaydi. Shunda "shayx vuzu'ni tamom qilib, qo'pti. Ikki o'l ilkin yuzumga sochti. Ul suv yetgach menga bexudlug' asari zohir bo'ldi. Shayx chun xonaqog'a kirdi. Men dog'i kirdim va shayx shukri vuzu'g'a mashg'ul bo'ldi va men ham anda turib, o'zumdin g'oyib bo'ldum. Ko'rdumki, qiyomat-qoyim bo'lubdur va do'zax zohir, elni tutub, o'tg'a soladurlar va bu yerda bir tepadur, birov o'lturubdur. Har kishi desakim, anga mutaallaqdurmen, oni o'tg'a solmay qo'yadurlar. Nogoh meni tuttilar. Men dedimkim, men oning mutaallaqlaridinmen. O'tqa solmadilar. Ul tepaga chiqdim. Ko'rdumki, Shayx Ro'zbehondur. Yugurub oyog'ig'a tushdum. Ul ilikin ko'tarib, bir qattiq silliy bo'ynumg'a urdi. Andoqki, yuz tuban yiqildim va dediki, mundin ortiq Haq ahlig'a inkor qilma! Chun yiqildim. Ul g'aybdin hozir bo'ldim. Shayx namozning salomin berdi. Hamul dastur bila yugurub oyog'ig'a tushdum. Shayx hamul voqeadag'idek mahkam silliy urub, hamul so'zni aytti. Ul mastlig' ranjurlug'i tamom xotirimdin raf' bo'ldi".

"M.Q." asarida Haq ahli u-n tavakkulning zodi rohlardan ekanligi urg'ulanadi: "Tavakkul ahli Haq yo'lin bu nav' yorutublar va aning g'ayrig'a tavassul xayolin ko'nguldin chiqoribdurlar". Shu asarda A.H. imomi deya Shayx Boyazid Bistomiy (quddisa sirrihu)ni ta'riflanar ekan, ushbu toifaning hikmatli so'zlaridan ham keltiradi: "Haqiqat ahli iymonni mundoq ta'rif qilibdurlar. "Iymon – qalbni Allohdan boshqa o'ziga rom etuvchi foydali va foydasiz narsalardan uzib, Haqqa bog'lashdir". Aslida mazkur ta'rif A.H.ga tegishlidir. Ularning ma'naviy maqom-u holi haqidagi tasavvurni tiniqlashtiradi. "L.T." dostonida Hudhud qushlarga insof ne'mati haqida tushuntirar ekan shunday deydi:

Odam ermas ulki noinsof erur,
Odam insof istamas – ammo berur.

Istamaslar eldin insof ahli haq,
Kim olarg'a keldi munsiflig' sabaq.

A.H. faqat Haqqa bog'lanib, xalqdan tamani uzgan kishilar. Ular insof, adolat timsolidirlar. N. ahli haqiqatning yo'li haqiqiy ishq ekanini ta'kidlaydi:

Majozdin manga maqsud erur haqiqiy ishq,
Nedinki, ahli haqiqatqa bu tariqat erur.

"L.T." dostonida "Xoja Bahouddin Naqshband so'zi Fanoyi komil maqomida" nomli bobda Shoh Bahouddin Naqshband hazratlarining nafsini xorlab, it izlariga nisbatan "Men ortug' ekanmu, yo bu iz?" deya malomat qilishi bayon qilinadi. Natijada, shoir naqshbandiya tariqati asoschisini Haq ahlidan sanaydi:

Ahli haq bu nav' etib salbi vujud,
Budini bu vajh ila aylab nabud.

Bo'yla oshom ettilar jomi fano,
Qolmog'ondin so'ng asar o'zdin yano.

Haqiqat ahli nafs tasfiyasi, qalb tazkiyasiga erishgan qurb ahillaridan. Shu bois naqshbandiya tariqati muridlaridan bo'lgan N. hazratlari ham A.H. jamoasidan bo'lishni istab, shunday deydi:

Bo'lg'usi ul xayl aro foniy dog'i,
Qilmog'oysen noumid oni dog'i

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011. Сажжодий. Фарҳанги истилоҳот ва таъбироти ирфоний. Теҳрон, 1370 (ҳ.-ш.); Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005.*

Z.R.

AHLI HAQOYIQ – haqiqat ahli. Zohir ahlining aksi, ya’ni ahli botin; ahlulloh. Shariat, tariqat, ma’rifat va haqiqat bosqichlarini bosib o‘tib, ilohiy mohiyatga yetgan kishilar. Haqning haqiqatiga erishgan, eng mukammal va eng yuksak tajriba sohibi bo‘lganlar. Bu toifani ahli tahqiq, muhaqqiq ham deydilar. Shuningdek, A.H.ni ahli mutahaqqiq, ahli tahqiq deb ham ataydilar. Ya’ni tasavvufda – haqiqatga aylantirgan, bir narsani boshidan kechirib va totib ko‘rgan, biror narsaning haqiqati b-n haqiqatlangan kishidir. Abu Nasr Sarroj Tusiy (vafot, 998) va Abu Abdurahmon Sulamiy (936–1031)larning ta’kidlashicha, A.H. shariat, tariqat, ma’rifat va haqiqat ketma-ketligida eng so‘nggi martabani tashkil qilgan haqiqat bosqichigacha yetib borgan, ilohiy haqiqatni o‘z haqiqatiga aylantira olgan, Haq taoloning haqiqati b-n haqiqatlangan, eng mukammal va eng yuksak darajada ma’naviy va ruhiy tajribaga ega bo‘lgan insonlardir.

N. tasavvufiy haqiqatning sir ekani va uni xalqdan pinhon saqlash lozimligini uqtiradi:

Ichingda sirri haqiqatni yoshuray der esang,
Ulustin ul guhari bebahoni pinhon yut.

“D.F.”da esa haqiqat sirri haqida so‘z aytgan b-n uni ifodalab bo‘lmasligini ta’kidlaydi:

Dar sirri haqiqat ba suxan roh naboshad,
Joe narasid, archi base raft suxanho.

Tarj.: Haqiqat sirrini bayon qilishda so‘z yo‘l topolmaydi. So‘zlar aytilgani b-n o‘z joyiga yetib bormaydi, (haqiqatni ifodalay olmaydi).

N. “L.T.”da shayx Farididdin Attorni madh etib, uni haqiqat sirlariga yetgan avliyo sifatida ta’riflaydi:

Kashfi asrori haqoyiqda farid,
Nutqidin ahli haqiqat mustafid.

N. asarlarida haqiqatbin (haqiqatni ko‘ruvchi, haqiqatchi), haqiqatmaob haqiqat manbayi, haqiqatchi), haqoyiqosor (haqiqatasarlilar, haqiqatchilar) haqiqat asrori (haqiqat sirlari), filhaqiqat (haqiqatda), haqiqat ahli (haqiqat egalari), muhabbat haqiqati, faqr haqiqati kabi so‘z va so‘z birikmalari b-n kerakli ma’nolar yoritiladi. “Ma’ni ahli haqiqati maxfiy va surat ahlining haqiqati da’vi va da’vi haqiqatda bema’ni), (...yana haqiqat ahlining sarxayl va sarafrozi Xoja Hofiz Sheroziy (M.Q.); “...bu olti qasida hamd va na’t va sano va mav’izatdur va ahli tasavvuf va haqiqat tili bila ma’rifat”. (M.L.); Abu Said Xarroz (q.s.) debdurki, Muhammad Mansurdin faqr haqiqatin so‘rdilar. Dediki, “har qanday yo‘qchilikda – xomushlik, har qanday to‘qchilikda saxiylik”. Va Junayd aytibdurki, “Agar Allohu taolo Abu Said Xarroz erishgan haqiqatni bizdan talab qilganda, albatta, halok bo‘lardik”.

Ad.: *Алишер Навоий. Девони Фоний. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик, 4-жилд. – Т., 1985; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва табъироти ирфоний. – Теҳрон, 1370 (ҳ.-ш.); Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005.*

E.O., N.J.

AHMAD MUSHTOQ (XV asr) – temuriylarga xizmat qilgan lashkarboshi. O‘z faoliyatini Sulton Abusaid (1451–1469-y.) davrida boshlagan. 1466-y.da Badaxshonga qilingan yurishda ishtirok etgan. Sulton Abusaid halok bo‘lgandan so‘ng (1469) Samarqandga uning o‘g‘li Sulton Ahmad huzuriga kelgan. Keyinchalik A.M. va bir nechta beklar Sulton Ahmadning ukasi Sulton Mahmudni yo‘ldan urib, Hisor viloyatiga olib kelganlar va hukmdor deb e’lon qilganlar. 1471–1472-yy.da A.M. Balx hokimi bo‘lgan.

Tarixiy manbalarda N.ning A.M.qa qarshi yurishida ishtirok etgani haqida ma’lumotlar

bor. Yuqorida aytilganidek, A.M. Balx hokimi bo‘lgandan so‘ng mustaqillikka intila boshlagan. Sulton Husayn Boyqaro Balxni undan tortib olish u-n o‘zining Amir Abdulxoliq boshliq bir guruh lashkarboshilarini jo‘natgan, lekin A.M. ularning maqsadini fahmlab qolib, ehtiyot choralarini ko‘rgan va Sulton Ahmad va Sulton Mahmudlarga elchi yuborgan. Ular A.M.qa yordam berishga va’da qilganlar. Bu xabarlarni eshitgan Sulton Husayn Boyqaro Balxga qo‘shin tortishga qaror qilgan. N. ham boshqa amir va lashkarboshilar qatorida bu harbiy yurishda qatnashgan. Uzoq davom etgan qamaldan so‘ng Balx zabt etilgan.

Ad.: *Навоий замондошлари хотирасида. – T., 1985.*

Q.E.

AHMAD HOJIBEK (Amir Ahmad Hoji, t.y.n. – 1496, Buxoro) – Sulton Abusaid, Sulton Mahmud va Boysung‘ur mirzo kabi temuriy hukmdorlar davrida faoliyat ko‘rsatgan davlat arbobi, lashkarboshi va shoir. N. hayotiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda u N.ning samarqandlik do‘sti va homiysi sifatida tilga olinadi. Aslida esa ular o‘rtasidagi munosabatlar ancha ilgari Xurosonda boshlangan. Zero, A.H. Xurosonda o‘sgan va ta’lim-tarbiya olgan. Sulton Abusaid davrida 10 yilga yaqin Hirot hokimi bo‘lgan. O‘sha vaqtda toj-u taxt u-n kurash boshlagan Sulton Husayn Boyqaro qo‘shinlari tez-tez Xurosonga hujum qilib turar edi. Ana shunday janglarning birida Sulton Husayn navkarlaridan ikki kishi asir qilib olinadi va A.H. ularni o‘ldirishga buyruq beradi. N. ana shu vaqtda A.H. o‘rdasida edi. U A.H.ga asirlarni hukmdorga tirik yuborishni maslahat bergan. A.H.ga ham bu fikr ma’qul tushgan va shu tariqa asirlarning hayoti saqlab qolingan.

1466-y.da Samarqand hokimi Jonibek do‘ldoy vafot etadi. U A.H.ning amakisi edi. Sulton Abusaid A.H.ni Jonibekning o‘rniga Samarqand hokimi etib tayinlagan. Bir muncha vaqtdan so‘ng N. ham Samarqandga kelgan. Bu yerda u A.H.ning moddiy va ma’naviy yordamidan bahramand bo‘lib turgan. Ular o‘rtasidagi do‘stlik keyinchalik N. Hirotga qaytgandan keyin ham davom etadi va faqat shaxsiy reja u-n emas, ijtimoiy-siyosiy tomondan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, N. Husayn Boyqaro davlatida qanday yuksak mavqega ega bo‘lgan bo‘lsa, A.H. ham Sulton Ahmad mirzo davlatida shunday nufuzga ega edi va 2 davlatning (Xuroson va Movarounnahr) oliy martabali shaxslari o‘rtasidagi do‘stlik, tabiiyki, davlatlararo munosabatlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

Bu do‘stlik N. asarlarida ham aksini topgan. N. o‘z “S.”sining 21-bo‘limini A.H.ga bag‘ishlaydi. Shoir olamdan o‘tib ketgan do‘stlari haqida mungli xotiralarni aks ettiruvchi misralar bitar ekan, ulardan birining, ya’ni Vafoiyning (Vafoiy – A.H.ning taxallusi) hayot ekanini aytib, o‘ziga taskin beradi va Vafoiyga qaratilgan ezgu tilaklarini quyidagicha izhor etadi:

Birikim qoldi, base ko‘p qolsun,
Umr komini jahondin olsun.
Chun Vafoiy bila bo‘ldi mashhur,
Aylasun umri vafo birla zuhur.

A.H. davlat arbobi, lashkarboshi bo‘lish b-n bir qatorda ulkan ijodkor ham edi. U she’riy devon tuzgan. N. o‘zining “M.N.” tazkirasida unga faxrli o‘rin ajratgan va Xurosondan boshqa yerlardagi shoirlarga bag‘ishlangan oltinchi majlisni uning zikri b-n boshlagan. Unda A.H.ning she’riy iste’dodi, shaxsiy fazilatlari, davlat arbobi sifatidagi faoliyati yuqori baholangan. Shuningdek, N. uning harbiy sohadagi iqtidorini va bahodirligini alohida ta’kidlaydi. Tazkirada Vafoiy ijodidan bir forsiy bayt keltirilgan. “M.N.”ning uchinchi majlisida Zamoniy degan shoir zikrida ham N. A.H.ni tilga oladi va bu o‘rinda bitilgan so‘zlar uning A.H. ijodi va shaxsiga qanchalik hurmat b-n qaraganidan dalolat beradi.

N. asarlarida A.H.ning o‘limi va bu voqea b-n bog‘liq tafsilotlar o‘z aksini topmagan. Ushbu fojea 1496-y.da yuz bergan. Shu yili tarxon beklari o‘z hukmdorlari Boysung‘ur mirzoga xiyonat qilib, unga qarshi fitna uyushtirganlar. Tabiatan mard va sadoqatli inson bo‘lgan A.H.

ularga qarshi chiqqan. Shayxulislom Abulmakorim, ba’zi beklar va poytaxt aholisining katta qismi uni qo‘llab-quvvatlagan. Natijada, fitna bostirilgan. Fitnachilar va Boysung‘ur mirzoning ukasi Sulton Ali Buxoroga borishgan. Boysung‘ur mirzo Buxoroga qo‘shin tortgan. Jangda Sulton Ali Mirzo va tarxon beklari g‘olib chiqqan. A.H. asir olingan va qatl etilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Соқийнома. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Абдураззоқ Самарқандий. Матлаъи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. 2-жилд. – Т., 2008; Хондамир Макорим ул-ахлоқ. – Т., 1967; Эргашев Қ. Некоторые аспекты государственной деятельности Алишера Навои. – Т., 2009.*

Q.E.

AHMADI JOMIY – Abunasr ibni Abulhasan (1409–1141, Jom), mutasavvif shoir. A.J. Shayx ul-Islom martabasiga ko‘tarilgan, tasavvufga oid “Anis ul-tolibin”, “Kuduz ul-hikmat”, “Bihor ul-haqiqat”, “Siroj ul-soirin”, “Miftoh ul-najot” va boshqa asarlar yaratgan.

A.J.ning ishqiy va orifona g‘azallar devoni bor. She’rlari sodda va ravon yozilgani u-n xalq orasida keng tarqalgan. “Sabanari-yu Zardpariy” nomli qissani va XVIII asr shoiri Jomiy G‘armiyning “Varqa va Gulshoh” asarini A.J.ga xato nisbat beradi. Bunday asarlar tarkibiga A.J. g‘azallari ko‘plab kiritilgan bo‘lsa ajab emas.

N. “L.T.”da bir qushning Hudhuddan bu mashaqqatli yo‘lda baland himmatning qanday ma’nosi bor? – degan savoliga javob berib, muvaffaqiyatga erishishda himmatning o‘rni katta, deb javob qiladi. N. bu fikrni tasdiqlash u-n hikoyat keltiradi. Unda A.J. – tirik fildek bahaybat odam qiyomat kuni do‘zax azobini tortayotganlar ahvolini ko‘rib, Allohdan barchaning gunohiga afv so‘raydi, yo‘qsa ularning o‘rniga o‘zini do‘zaxga mahkum etishni iltijo qiladi. Bunday oliyhimmatlilik evaziga Alloh barchaning gunohini kechiradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

S.G‘.

AHMEDOV Bo‘riboy Ahmedovich – (1924, Andijon – 2002, Toshkent) – tarixchi, sharqshunos. O‘zbekiston FA akad. (1995), O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi (1989), tarix fanlari d-ri (1974). Bir qancha qo‘llanma, lug‘atlar (“Tarixdan qisqacha izohli lug‘at”, 1977) mualliﬁ. A.B.A.ning ilmiy faoliyati o‘zbek xalqining etnik tarixi va shakllanishi, manbashunoslik, O‘rta Osiyo xalqlarining X–XIX asrlardagi ijtimoiy-siyosiy tarixi, Temur va temuriylar davri tarixi hamda madaniyati kabi muhim yo‘nalishlarga qaratilgan. U “Tarixni soxtalashtirib bo‘lmaydi” nomli maqolasida Movarounnahr tarixini sinchkovlik va bilimdonlik b-n tadqiq etib, Temur va temuriylar davri tarixiga baho berishdagi biryoqlamaliklarni tanqid qiladi hamda o‘rta va oliy maktablarda O‘zbekiston xalqlari tarixi fanini o‘qitishdagi kamchiliklarni qator dalillar b-n bayon etadi.

A.B.A. Davlatshoh Samaraqandiyning “Tazkirat ut-shuaro” asarini fors tilidan tarjima qilib, “Shoirlar bo‘stoni” sarlavhasida so‘zboshi va izohlar b-n nashr ettiradi. U “Navoiy zamondoshlari xotirasida” (T., 1985.) kitobining tuzuvchisi bo‘lib, aksariyat qismlarini tarjima qilib, so‘zboshi, lug‘at va izohlari b-n nashrga tayyorlagan. To‘plamga Abdurahmon Jomiyning “Fotihat ul-shabob”, “Layli va Majnun”, “Haft avrang”, Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro”, Mirxondning “Ravzat us-safo”, Xondamirning “Xulosat ul-axbor”, “Makorim ul-axloq”, “Dastur ul-vuzaro”, “Habib us-siyar”, Boburning “Boburnoma”, “Muxtasar”, Vosifiyning “Badoye’ ul-vaqoe’”, shuningdek, Sodiqbek Sodiqiyning “Majma’ul ul-havos” asarlaridagi N. haqida qayd qilingan turli-tuman ma’lumotlar kiritilgan. Mazkur to‘plam N. hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyatini chuqur o‘rganishda o‘zbek ti-

liga tarjima etilgan ishonchli bosh manbalardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Ad.: *Аҳмедов Б. ЎзМЭ. 1-жилд. – Т., 2003; Аҳмедов Б. Ўзбекларнинг келиб чиқиши тарихидан. – Т., 1963; Аҳмедов Б. История Балха. – Т., 1982; Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Т., 1986; Аҳмедов Б. Ўзбек улуси. – Т., 1992; Тарихдан сабоқлар. – Т., 1994; Аҳмедов Б. Тарихни сохталаштириб бўлмайди. – Т., 1989; Навоий замондошлари хотирасида: Тузувчи: Аҳмедов Б. – Т., 1985.*

B.R.

AHMEDOV Toshpo‘lat (1934, Qiziltepa – 2005, Toshkent) − adabiyotshunos, n.shunos. O‘zi tug‘ilgan Uzilishkent qishlog‘idagi o‘rta maktabni tugatib, 1952-y. SamDUning filologiya fakultetiga o‘qishga kirdi. 1957-y.da uni tamomlagach, avval Romitan tumanidagi o‘rta maktabda, 1958–1961-yy.da Qiziltepa tumanidagi N. nomidagi maktabda til va adabiyot o‘qituvchisi hamda ilmiy bo‘lim mudiri bo‘lib ishladi.

Ilmga bo‘lgan qizg‘in ishtiyoq A.T.ni O‘zR FA Til va adabiyot institutiga boshlab keldi. U 1961-y. institutda kichik ilmiy xodim lavozimiga ishga kirdi. 1962–1965-yy.da shu institutning aspiranturasida tahsil oldi. Buyuk o‘zbek shoiri N.ning “L.M.” dostonining jiddiy tadqiqiga kirishgan yosh n.shunos 1965-y.da ushbu mavzuda nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

A.T. bir necha yillik ilmiy izlanishlarining yirik mahsuli − “Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostoni” (1970) monografiyasi N.ning “X.” dostonlari bo‘yicha alohida yaratilgan keng ko‘lamdagi dastlabki izlanishlardan biri bo‘lib, unda doston manbalari, shoirning ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-axloqiy qarashlari, salaflari ijodiga munosabati chuqur tahlil qilingan hamda asarning mavzu va g‘oyasi, asosiy obrazlari, badiiy tasvir vositalari tadqiqotchi tomonidan yorqin til va uslubda ifoda etilgan. O‘z davrida munosib baholangan bu ilmiy asar N.ning dostonnavislikdagi mahoratini yoritishga bag‘ishlangani b-n alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, A.T. “Kiromiyning “Gavharnoma”si va unga Navoiyning munosabati to‘g‘risida”, “Layli va Majnun” dostonida tasviriy vositalarning ishlatilishi” kabi qator salmoqli maqolalarning muallifi sifatida ilmiy jamoatchilikka tanildi.

U besh jildlik “O‘zbek adabiyoti tarixi”ning faol mualliflaridan biri. Kitobning “XV asrning birinchi yarmidagi madaniy va adabiy hayot” (1-jild), “XV asrning ikkinchi yarmida Xuroson va Movarounnahrdagi ijtimoiy-siyosiy, adabiy va madaniy hayot” “Layli va Majnun” (2-jild), “Xiva xonligidagi siyosiy-ijtimoiy, madaniy va adabiy hayot”, “Munis” (4-jild) qismlari A.T. ning qalamiga mansub. U rus tilidagi 2 jildlik “O‘zbek adabiyoti tarixi”ning yaratilishida ham faol ishtirok etgan. Uning “Munis” (1980) risolasi ham keng kitobxonlar tomonidan o‘ziga xos tadqiqot tarzida iliq qabul qilindi.

A.T. bir necha yillar mobaynida “X.” dostonlaridagi ijobiy obrazlar yuzasidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borib, uning natijasi sifatida “Xamsa” qahramonlarining xarakter jozibasi” risolasini yaratdi (1986). Unda Iskandar, Farhod, Bahrom, Shirin, Dilorom, Bonu kabi qator obrazlar xususida fikr yuritilgan bo‘lib, ularga yuklatilgan ijtimoiy vazifalar, shoirning g‘oyaviy niyati keng tahlil etilgan.

A.T. N. asarlari noshiri sifatida ham faoliyat ko‘rsatgan. U M.Hamidova b-n hamkorlikda tayyorlangan “Saddi Iskandariy” dostoni shoir 20 jildlik “MAT”ning 11-jildida chop etildi (1993). Bu doston matni nodir qo‘lyozmalar b-n qiyoslangani va ilmiy izohlar b-n ta’minlagani jihatidan mukammaldir.

Ad.: *Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. ТАТ. 10 жилдлик, 7 жилд. – Т., 2011; Аҳмедов Т. Хамса достонларининг характер жозибаси. – Т., 1986.*

I.H., E.O.

B

BADAXSHON – Amudaryoning yuqori oqimi (Panj daryosining ikki sohili)dagi o‘lka, hozir shimoliy qismi Tojikiston, janubiy qismi Afg‘oniston hududida. Relefi tog‘ va tog‘oldi qirlaridan iborat bo‘lgani u-n Ko‘histon deb ham atalgan. B.da ko‘p asrlar davomida mahalliy sulola – B. shohlari hukmronlik qilib kelgan (ko‘pincha Markaziy Osiyodagi kuchli davlatlarga vassal tarzida). Ular Amir Temur va temuriylar hokimiyatini tan olgan, lekin imkoniyat tug‘ilishi b-n bo‘ysunishdan bosh tortib turgan. Shu sababli Sulton Abusaid B. shohi Sulton Muhammad va uning o‘g‘lini qatl qilib, sulolaga barham bergan. B. tarixiy toponimi N. asarlari matnida ham uchraydi. “M.N.” tazkirasida badaxshonlik shoirlar haqida alohida fiqra yozgan bo‘lsa, “S.I.”ning “Muxolibat” bobida ham B. qadim xonavoda sifatida tilga olingan.

Mavlono Qumiy haqidagi ma’lumotda shoir Badaxshiydan tarbiya ko‘rganligi to‘g‘risida gap boradi: “Mavlono Qumiy – Ubadindur. Kichik yoshidin Mavlono Muhammad Badaxshiy ani tarbiyat qildi”.

Tazkiraning boshqa o‘rinlarida ham badaxshonlik Mavlono Qumiy Badaxshoniy nomi tez-tez tilga olinganini ko‘rish mumkin.

“Dahnoma” muallifi Mavlono Amiriy haqida N. fiqra yozar ekan, uning qabri B.da ekanligiga urg‘u bergan: “Aning qabri Badaxshon sari Arhang Saroydadur”.

B.lik mashhur Mavlono Badaxshiy to‘g‘risida “M.N.”da alohida fiqra yozgan. Uni quyidagicha ta’riflaydi: “Mavlono Badaxshiy – fozil kishi ermish, Ulug‘bek Mirzo zamonida Samarqandda shuaro ani xushgo‘yliqg‘a musallam tutubdurlar. Va Mirzoning dag‘i ko‘p iltifoti bor ermish...”

N. “N.M.”da berilgan 770 nafar shayxlar, oriflar to‘g‘risidagi ma’lumotlarda ular tug‘ilgan, voyaga yetgan, tahsil olgan hudud, shahar – kentga ham diqqat qaratgan, shu jumladan, B.ga ham. Mashhur sayyoh, adib, mutafakkir, filosof Nosir Xusrav haqidagi alohida fiqrada ham uning B.ning Ko‘histon degan qishlog‘idan ekanligiga alohida to‘xtalgan: “Sayyid Nosir Xusrav (q.s.) – Badaxshon Ko‘histonida bo‘lur ermish. Bag‘oyat murtoz kishi ermish, Ko‘histon ahli boshtin ayoq oning murididurlar va Shoh Nosir Xusrav bila ta’bir qilurlar. Zohir ulumin xeyli ko‘rgan ermish va botin ilmin dag‘i riyozat jihatidin hosil qilg‘ondur, ammo bu toifaning aning mazhabida ta’nlari bor va bu ta’n go‘yo “Ro‘shnoyinoma”sida mazkur bo‘lg‘on ab’yoti jihatidindurki, hukm mazhabi ravishida voqe’ bo‘lubdur va mozori Ko‘histondadur, yuzoru va yutabarraku bihi”.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

B.R.

“BADOYE’ UL-LUG‘AT” – (“Ajoyib lug‘at”) – XVI asrning ilk sanalarida Hirotda Sulton Husayn Boyqaro topshirig‘i b-n N. asarlariga tuzilgan va bizgacha yetib kelgan lug‘atlarning eng qadimiysi. Muallif Tole’ al-Imoniy al-Hiraviy fors, turk va arab tillarini bilgan, saroy devonida xizmat qilgan. N. o‘zining “M.N.”da Tole’ al-Imoniy al-Hiraviyni shoir deb tilga olgan.

Lug‘atning bizgacha yetib kelgan birgina qo‘lyozmasi 1705–1706-yy.da ko‘chirilgan

bo‘lib, Sankt-Peterburgdagi Saltikov-Shchedrin kutubxonasida saqlanadi. Prof. A.K.Borovkov bu yagona nusxa faksimilesini o‘z tarjimasi va kirish qismi b-n birga chop qildirgan. Mazkur nashr turkologlar, ayniqsa, n.shunoslar u-n muhim qo‘llanma vazifasini o‘tagan. Hajmi 180 bet. 1-10-betlarida lug‘atchilik va bu lug‘at haqida ma’lumot berilgan. Fors lug‘atchilik maktabining eng yaxshi an’analari asosida tuzilgan.

“B.L.” uch qism kirish, lug‘at matni va zayl, ya’ni qo‘shimchadan iborat. Kirish qofiyali nasr – saj’ b-n yozilgan. Orada she’riy parchalar ham keltiriladi. Ma’lum bo‘lishicha, Tole’ Hiraviy N. she’rlarini tushunish u-n zarur ba’zi qiyin eski o‘zbek so‘zlarini o‘z ichiga oluvchi qisqa lug‘at tuzishi kerak bo‘lgan. “B.L.” N. asarlarida uchraydigan, avvalo, turkiy va mo‘g‘ulcha so‘zlarni, so‘ng esa juda kam miqdorda arabiy so‘zlarni ham o‘z ichiga olgan. Shuningdek, lug‘atni tashkil qiluvchi bu so‘zlarning ma’nolari fors tilida izohlangani yoki tushuntirilgani u-n “B.L.” ikki tilli lug‘atlar turiga kiradi. Tole’ Hiraviy davriga, ya’ni XV asrga kelib, ikki tilli lug‘atlarni tuzishda katta tajriba yig‘ilgan edi. Arabcha-forscha, forscha-turkcha, jumladan, turkcha-arabcha lug‘atlar ko‘plab tuzilgan bo‘lib, katta izohli lug‘atlar qatori tarjimali lug‘atlar tuzish bo‘yicha ham boy leksikografik an’ananing mavjudligi “B.L.”-ni yaxshi leksikografik saviyada tuzish imkonini bergan.

Lug‘atda so‘zlar birinchi harfi bo‘yicha arab alifbosi tartibida keladi va har bir harf b-n boshlangan so‘zlar birgalikda “bob” deb ataladi. *So, zol, zod* va *zo (izg‘i)* harflariga so‘z yo‘q. *B* va *P; J* va *Ch; K* va *G* harflari b-n boshlangan so‘zlar *bo, jim, kof* boblariga joylashtirilgan, shuning u-n lug‘atda 24 bob mavjud. Ularning har biri quyidagi tartibda uchga bo‘linadi:

1. Birinchi harfdan keyingi harakat – fatha: tartыg‘ – “tortiq, sovg‘a”, tarqamaq “tarqamoq”.

2. Birinchi harfdan keyingi harakat – zamma:bu, burun “ilgari”.

3. Birinchi harfdan keyingi harakat – kasra: *qыrav* “qirov”, qыmach “jallod”. Bu tamoyil bo‘yicha m-n, *taban* “tovon” so‘zi “to bobi”ning “toyi maftuha”, ya’ni ushbu kitobning boshlanishi b-n “bobi toyi mazmuma” orasida joylashgan bo‘ladi.

Lug‘at maqola tarkibida quyidagi ma’lumotlar bor: 1. Bosh so‘z; 2. Uning fonetik tuzilishi; 3. Misol olingan manba; 4. Tasdiqlovchi misol. Ayrim lug‘at maqolalarda so‘zning fonetik varianti, uning talaffuzdagi ko‘rinishi, so‘z etimologiyasiga oid qimmatli ma’lumotlar berilgan. Lug‘atda XV asr o‘zbek tilidagi so‘zning orfoepiya va orfografiyasi aniq ko‘rsatilgan. Shu jihatdan ushbu lug‘at XV asr eski o‘zbek tili fonetikasi bo‘yicha noyob yodgorlik hisoblanadi. Chunonchi, kelin so‘ziga “L.M.” dostonidan quyidagi misol keltirilgan:

Ko‘p ziynat-u zeb aylab ikovni
Gulchehra kelin balki kiyovni.

Lug‘atdan jami 854 so‘z o‘rin olgan. So‘z ma’nolari ixcham va sodda ochib berilgan. Har bir so‘z o‘zining ma’nolari va shu ma’nolar tasdig‘i u-n keltirilgan misollar – illyustratsiyalar b-n birga mustaqil lug‘at maqolani tashkil qiladi hamda qo‘lyozmada uning bosh so‘zi sifatida lug‘at matnidan ajratilib, qizil siyoh b-n bitilgan, ba’zan esa ustiga chiziq ham tortib qo‘yilgan.

“B.L.”dan ko‘rinishicha, N. tilida 10 ta unli tovush bor. Lekin Tole’ Haraviy qoidalari bo‘yicha unlilarni yozuvda ko‘rsatish u-n qabul qilingan *alif, vov, yo* harflari va *bi-fath, bi-zam, bi-kasr* ishoralari faqat *a, u, i* unlilarini ifodalashi mumkin, xolos. Arab grafikasining N. tili u-n bu zaif jihati lug‘atnavislarni qo‘shimcha fonetik ishoralardan foydalanishga majbur etgan. Unlilarning “ingichka” va “qalin”ligini farqlash u-n “ingichka unlilar” – ishbo’li (bi-ishbo’) va “qalin unlilar” – ishbo’siz (bi-lo ishbo) fonetik ishoralarini Haraviy o‘z lug‘atida qo‘llagan.

“B.L.”da quyidagi undosh harflar bor: *b, p, t, j, ch, h, x, d, r, z, s, sh, s, t, ‘, g, f, q, k, g, l, m, n, v, h, y.* Bu harflarining to‘g‘ri o‘qilishi u-n ham maxsus ishoralar beriladi. Avvalo, ular 2 katta guruhga bo‘linadi:

1. Nuqtasiz harflar (hurufi muhmila): *h, d, r, s, s, t, ‘, k, g, l, m, h, v, y.*

2. Nuqtali harflar (hurufi mu’jama): *b, p, t, j, ch, x, z, sh, r, f, q, n.*

Harflarning yozilishi va o‘qilishida xato bo‘lmasligi u-n, deyarli, hamma harflarga nisbatan abjad hisobidagi so‘zlardan ham foydalanilgan. M-n, “toyi qarshat”, “royi qarshat” deyilganda “qarshat” tarkibidagi “t” va “r” harflari, “boyi abjad” deyilganda esa “b” harfi tushuniladi.

“B.L.”ga kiritilgan lug‘at maqolalarning bosh so‘zlari sifatida kelgan bo‘lib, ularning asosiy qismi quyidagi so‘z turkumlariga kiradi:

Fe’l: *artamaq* “shoshmoq”, *azgqmaq* “adashmoq, yo‘ldan ozmoq”, ushatmaq “ushatmoq”, irikmak “turmoq”, eskirmak “eskirmoq”, butmak “bitmoq, o‘smoq”, bo‘zlamaq “bo‘zlamoq”, tarqamaq “tarqamoq”, tavshalmaq “orqada qolmoq, sudralmoq”, qavushmaq “qovushmoq”, kuymak “kuymoq”, yutmaq “yutmoq”, yo‘nmaq “yo‘nmoq”, yemrulmak “yemirilmoq” va h. k. Muallif *–maq,–mak* qo‘shimchali fe’llarni “masdar” deb ataydi. Lug‘at maqola boshiga olingan fe’l masdarlarining o‘timli fe’l, o‘timsiz fe’l, o‘zaro harakat fe’li, majhul daraja fe’li turlari farqlanadi. Lug‘at maqolalar ichida esa fe’l zamonlari o‘tgan zamon, hozirgi-kelasi zamon, mustaqbal, hozirgi zamon va ularning bo‘lishsiz va bo‘lishli, buyruq shakllarining birortasi ko‘rsatib boriladi: *yalbarmaq – iltimos kardan; yalbardim – iltimos kardam; yalbaring – amr ba jamoai muxotibin: yalbarmish – xabar az mug‘oyibi vohid, ba ma’ni iltimos karda ast. (yalbarmaq – iltimos qilmoq; yalbardim – birinchi shaxs ko‘plik buyrug‘i, iltimos qilinglar; yalbarmish – uchinchi shaxs birlik, “iltimos qilgandir” ma’nosida).*

Fe’ldan boshqa so‘z turkumlari u-n ham “B.L.”da grammatik izohlar keltirilgan:

Ismi foil yoki foil – *harakat bajaruvchi shaxs oti;*

Ismi maf’ul yoki maf’ul – *majhul sifatdosh;*

Maf’ul lahu – *to‘ldiruvchi;*

Ismi ishora – *ko‘rsatkich olmoshlari;*

Zarfi zamon – *ravish (zamon ravishi);*

Af’ali tafzil – *orttirma daraja;*

Hurufi istifhom – *so‘roq yuklamalari;*

Istifhomi inkoriy – *inkor yuklamasi;*

Hurufi tanbeh – *tanbeh yuklamalari;*

Hurufi tashbeh – *o‘xshatish yuklamalari;*

Hurufi robita – *bog‘lovchilar;*

Siyg‘ayi mubolag‘a – *mubolag‘a forma.*

Fonetik va grammatik qaydlar lug‘at maqolalar ichida izohlar b-n birga aralash ravishda keladi. Izohlar fors tilida. Ba’zi so‘zlarning ma’nosi fors tilidagi ekvivalent so‘zlar bilangina beriladi:

“sayaq” – tanho “yolg‘iz...”

kunash – oftob “kun, quyosh”...

Faqat ekvivalent tarjimasi va boshqa qaydlarsiz so‘zlar juda ozchilikni tashkil qilsa, aksar so‘zlarning ma’nolari esa tavsif yo‘li b-n kengaytirilgan izohlarda ochib beriladi. Ba’zi hollarda so‘zning arabcha tarjimasi va o‘zbekcha sinonimi ham ko‘rsatiladi.

tulum – ... mastona ashula aytish va eshitish. Bu – turklarning mashhur odati. “H.A.”da keladi:

Turk surudi bilan salыb qo‘lum,
Qilsa adoyi o‘lum vay tulum.

Tole’ Hiraviy ko‘pchilik izohlarda u yoki bu termin ma’nosini ochib berishda, uning ishlatilishi b-n bog‘liq urf-odatlar haqida ham ma’lumot berib boradi: to‘quz – to‘qqiz sonidir. Turklarning odati bo‘yicha qadah, agar ularning ulug‘lari tarafidan tutilsa-yu, qadahni ko‘targan kishi uning biror tomchisini tomizsa to‘qqiz, yoki to‘kilsa – o‘ttiz jarima qadahni ichadi, degan naql bor. Turklarning shu odatiga mana bu she’rda ishora bor:

G‘am g‘izosi arasыda qanы turkona ayag?
To‘ra oyini bila tamsa-to‘quz, aqsa-o‘to‘z.

“B.L.” tuzilishidagi eng muhim shartlardan biri – so‘zlarning ma’nolarini tasdiqlovchi misollarning keltirilishidir. Tole’ Hiraviy bu tamoyilni lug‘atning kirish qismidayoq ta’kidlab o‘tgan. Bu misollar “shohid”, deb ataladi va ular, asosan, N. “X.”sining “H.A.”, “F.Sh.”, “L.M.”, “S.S.”, “S.I.” va “L.T.” dostonlari, “M.Q.”, “M.N.” asarlaridan olingan. Hiraviy misol “Chor devon”dan

olindi deganida, “X.M.”ning “G‘.S.”, “N.Sh.”, “B.V.” va “F.K.” devonlaridan biriga ishora qilgan. Aksariyat, so‘zning ma’nosiga, ayniqsa, she’riy parchalar misol sifatida berilganda, o‘sha parchaning mazmuni ham bayon qilinadi: *quvanmaq* – quvonmoq, xursand bo‘lmoq, *quvanmadыm* – hozirgi-kelasi zamon inkor fe’lining 1 shaxs shakli (ya’ni, quvonmadim), chunonchi, mana bu she’rda keladi:

Shukr ey ko‘ngilki, bo‘lmadim aflok javridin,
Oshifta hol-u johqa dag‘ы quvanmadыm.

Chunonchi, bu matla’ ham shu jumladandir:

Sirishk qanыn yaqыng, ichup xыna qilayын,
Qabul tushsa, qaraqыm ezib, qara qылayын.

quvansaq – hozirgi-kelasi zamon fe’li (ya’ni quvonsak). “L.M.”da ushbu so‘z mazkurdir:

Rozi esa baxtdin quvonsaq,
Yo‘q esa qыbla sarы yansaq

quvanur – quvonyapti, quvanurmen – 1-shaxs shakli (ya’ni quvonyapman):

Quvanurmen anыng eski safalы ichra may ichsam,
Ki jam qылqan emastur jomi birla ul quvansaqni.

Lug‘atda Lutfiy, Husayn Boyqaro she’rlaridan va Mir Haydarning “Maxzan al-asror” asarlaridan ham misollar olingan. Shuningdek, Suhayliy va Azraqiy she’rlaridan misol keltirilgan.

Tole’ Hiraviy she’riy illyustratsiyalarni keltirishda ularning badiiy qiymatiga ham e’tibor beradi. She’rlardagi “Laff-u nashr” san’atini, ayniqsa, ko‘p tilga oladi. M-n, quyidagi she’rda u “Laff-u nashr” bor deydi:

Quyki, ul yuz xonыqa nazzora aylay to‘yqucha,
Kim ko‘zum bo‘lmish bu qahti husn ayyomida ach.
Ey Navoiy, ko‘ngluma yetmas riyozatsiz safo,
Istasang hasrat suyidin ro‘za ach.

Bu yerda *ach* so‘zining “och” (qorni och) va “och” (eshikni och) ma’nolariga e’tibor berilgan. Quyidagi she’rda esa *yan* “yon” “taraf” va *yan* “yon” (olov) so‘z o‘yini mavjud:

Ey Navoiy yaxshы ermas erdi ul yan
barmaqыng,
Chun barыp o‘tluq yuzin qilding tamosho,
emdi yan.

“B.L.” N. asarlariga tuzilgan lug‘at bo‘lsa ham, unda ayrim o‘rinlarda so‘zlarning fonetik ifodasida janubiy turkiy tillar–usmonli turk, ozarbayjon va turkman tillariga xos xususiyatlar ko‘zga tashlanadi. Bu ko‘pincha *t-d, q-k, k-g* tovushlarida o‘z ifodasini topadi. M-n, o‘sha janubiy turk tillarida *at “ot”* o‘rnida *ad, tar “tor”* o‘rnida *dar, tang* “tong” o‘rnida esa *dang* talaffuz qilinadi, deydi Haraviy. N. tili va, umuman,eski o‘zbek tiliga xos bo‘lmagan va lug‘atda uchraydigan bu kabi fonetik o‘zgarishlar muallifning janubiy turkiy tillarda gapiradigan kishilar orasida yashagani va ularning ta’sirida ekanini ko‘rsatadi.

“B.L.” o‘zbek tili tarixi va, ayniqsa, n.shunoslik u-n ahamiyatli bo‘lib, keyingi davrlarda tuzilgan lug‘atlar u-n yaxshi manba vazifasini o‘tagan, hozirgi kunda esa tilshunos, adabiyotshunos, olimlar, yozuvchi va shoirlar u-n unutilgan yoki unutilayozgan, lekin Haydar Xorazmiy, Lutfiy, N., Bobur kabi qalam ahli iste’molida bo‘lgan so‘zlarni o‘z sahifalarida saqlab turgan xazinadir. So‘zlar arab alifbosi bo‘yicha joylashtirilgan. Har bir harfga keltirilgan so‘zlar uch qismdan iborat. M-n, **b** harfli so‘zlar uch qismga bo‘lingan: *bobul al bo al maftuha, bobul al bo al mazmuma, bobul al bo al maksura.* Birinchi qismda *ba,* ikkinchisida *bi, be,* uchinchisida *bu, bo‘* b-n boshlanadigan so‘zlar joylashtirilgan.

Lug‘atda o‘zbekcha so‘zlar fors tilida izohlangan:

بیلباق (42 a) – bil kasr kamarband

bilbaq – i b-n, [forscha] kamarband

Lug‘atchi so‘z ma’nosini izohlashda forschadan tashqari arab so‘zlaridan ham foydalangan.

Lug‘atda so‘zlardan tashqari qo‘shimchalar, m-n, kichraytirish qo‘shimchasi “g‘ina” kabilar ham izohlangan:

-غینه(65 a) – bil kasr az jumla adoti tasg‘irast misl a:zg‘ina kichikina ki ba ma’ni kamrak va shirinrak... *g‘ina* – i b-n kichraytirish affiksi, a:zg‘ina, kichikkina so‘zlarida ishlatiladi, (forscha) ma’nosi kamrak va shirinrak.....

Ikavlasi so‘zi izohida *-si* qo‘shimchasi sin va yo dan iborat ekani ta’kidlanadi:

-ایکاولاسی (31 b) *ba* izofa *sin* va *yo* va ikavla pas behadaf yo va ikavni dar in maqom iste’mol shuda chunonki dar dafn namudani Layli va Majnun dar yak madfan guftaist:

Bir na’shqa soldilar ikavni,
Jonsiz kelin-u o‘luk kiyovni.

“B.L.” da so‘z variantlari ham qayd qilingan. Tole’ Imoniy ertalab ma’nosidagi tang so‘zi izohida uning dang shaklini ham qayd etadi:

-تانك(45 b) ba sukuni kofi ajamiy vaqti subh ki dar muhovirat xoli tabdil dol dang migo‘yand...

tang- g ustida sukun (forscha) vaqti subh, ushbu so‘z *dang* shaklida ham talaffuz qilinadi.

So‘z ma’nolarini izohlashda Tole’ Hiraviy, asosan, ekvivalent usulidan foydalangan:

اوتلاش(19 a) – ba zamma otashin

o‘tlash – zammali [forscha] otashin

Ekvivalent topilmaganda lug‘atchi yoyib izohlaydi:

بالجیغ(39 a) – ba jimi al mu’jama gil az ob va xok...

balchiq – j nuqtali, suv va tufroqdan iborat loy...

Omonim so‘zlar an’anaga ko‘ra, lug‘ati mushtarak atamasi orqali ko‘rsatilgan.

Izohlanayotgan so‘zlarga, asosan, bir bayt ayrim o‘rinlardagina ikki bayt keltiriladi:

توزاق(51 a) – bal ishbo’ domro go‘yand... she’r:

Soching asirimen o‘pmay hanuz xolin vah,
Ki donag‘a ag‘iz urmay nasibim bo‘ldi tuzoq.

Tole’ Imoniy so‘zlar orfografiyasiga katta e’tibor bergan. O‘xshash shakldagi undoshlar maxsus terminlar orqali ko‘rsatilgan: j – jimi arabiy, ch – jimi forsiy, k – kofi arabiy, g – kofi forsiy, b – boi tozi...

آج(6 b) – ba jimi arabiy gurusna...

a:j – jimi arabiy – j b-n, [forscha] gurusna...

-بیلتك (41 b) ba boi tozi alkan...

biltak – arabiy b b-n [forscha] alkan...

-کیرپیچ (76 a) ba kasri kofi ajamiy va sukuni jimi tozi xishtro go‘yand...

Arab alifbosida nuqtali va nuqtasiz harflar mavjud. Nuqtali harflar vaqt o‘tishi b-n o‘chirilib ketishi mumkin. Lug‘atchi shuni hisobga olib, mu’jama – nuqtali, muhmala – nuqtasiz terminlaridan foydalangan:

“B.L.”dagi ayrim misollar nashrdagi kamchiliklarni tuzatishga yordam beradi. M-n, “F.K.”da shunday bayt bor:

Birov jismiga ossa ul siymtan o‘q,
Mening jonima sanchilur yuz tuman o‘q.

1-misradagi “ossa” so‘zi lug‘atda otsa shaklida berilgan:

Birov jismiga otsa ul siymtan o‘q,
Mening jonima sanchilur yuz tuman o‘q.

Mantiqiy mushohada “otsa” so‘zi to‘g‘riligini ko‘rsatadi. Sababi o‘q osilmaydi, otiladi.

Ushbu lug‘at 1960-y.da A.K.Borovkov tomonidan nashr qilingan.

Ad.: *Ҳасанов Б. Жавоҳир хазиналари (Алишер Навоий асарларига тузилган қўлёзма луғатлар). – Т., 1989; Бадайи ал-луғат – словарь Тали Имани Гератского к сочинениям Алишера Навои. Перевод и введение А.К. Боровкова, ИВЛ. – М., 1961.*

E.U.

BADEIY (taxallusi; ismi: Mavlono Yusuf (t.y.n., Andijon − 1485, Saraxs) − forsiygo‘y shoir. N. Samarqanddaligida B. Andijondan tahsil u-n kelib, u b-n tanishib, yaqinlashadi. Husayn Boyqaro hukmronligi davrida Hirotga kelib, N. boshliq adabiy muhitdan joy oladi. Ma’rifatli,

fozil kishi bo‘lib, xususan, aruz, muammo va badiiyat ilmlarida tengsiz bo‘lgan. Muammo qoidalariga bag‘ishlab risola yozgan.

N.ning aytishicha, B. she’rlaridagi xomliklarni u isloh qilgan. Hirotga kelgach, ancha kamolot kasb etgan. She’riyatning turli janrlarida mahorat b-n qalam tebratgan. Amir Xusravning “Mir’ot us-safo” (“Soflik oyinasi”) qasidasiga tatabbu’ yozgan. Qasidaning ushbu bayti go‘zal chiqqan:

Duri maqsad jo‘yon majma’ ul-bahrayn
shud so‘fiy,
Ki bahri dur ast az chashmayi har chashmi
giryonash.

Tarj.: So‘fiy maqsad gavharini izlay-izlay majma’ ul-bahrayn (ikki daryo qo‘shilgan joy) ga aylandi, chunki ko‘zlarining yoshidan paydo bo‘lgan har bir chashma dur to‘la bir daryodir.

Xondamir “Xulosat ul-axbor”da Mavlononing tab’i va zehni yetuk bo‘lib, N. xizmatida kun kechirgani va uning in’om-ehsonidan bahramand ekani haqida ma’lumot beradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988.*

E.O.

BADIUZZAMON MIRZO – (1458, Hirot – 1515, Istanbul) – Xurosonda temuriylar davlati hukmdori (1506–1507). Husayn Boyqaroning to‘ng‘ich o‘g‘li, onasi Marv hokimi Sanjar Mirzoning qizi Beka Sulton begim. N. B.M.ga katta umidlar bog‘lagan.

N. “M.N.”da uni quyidagicha ta’riflagan: “Sulton Badiuzzamon Mirzo husni surat va husni siyrat bila orasta va jamoli zohiriy va kamoli botiniy b-n piyrosta yigitdur. Razm atvoridin otartutarda dilpisand, bazm asbobidin ichmak va bag‘ishlamoqda bemonand. Tab’i nazm uslubida muloyimdur. Bu turkiy matla’ dag‘i tarkibda xub va holatda marg‘ub voqea bo‘lubturkim:

Ey sabo, gar so‘rsa holim shammae
ul sarvinoz,
Evrulib boshig‘a men sargashtadin
etkur niyoz.

N. nazaridan o‘tgan B.M.ning ushbu bayti an’anaviy, ya’ni saboga murojaat tarzida yozilgan bo‘lsa-da, bizga shahzodaning ijodi, mahorati, uslubi to‘g‘risida ma’lum bir tasavvur bera oladi.

N. “F.Sh.” dostonining XI bobida Sulton B.M.ni:

Shahekim, Tengridin besa’yu ko‘shish,
Bori shahlardin ortuq torti baxshish.

Jahong‘a boisi amnu amon ul,
“Badi ud-dahru Doroyi zamon” ul, –

deb ta’riflaydi. Ushbu bobda N. badiiy mahorat b-n shahzodaning Badiuzzamon ismidagi o‘n harfini “hurufi maxazin” san’ati asosida sharhlaydi. Bunday badiiy sharhni N. Farhod ismida ham mahorat b-n qo‘llagan. N. shahzodaga salomatlik, kamolot b-n birga jahon mulkini ham tilaydi hamda falakdan, taqdirdan zavol yetmasin, deb uni duo qiladi:

Jahon mulki anga bo‘lsun muyassar,
Quyosh toji aning boshig‘a afsar.
Berib davron quyosh yanglig‘ kamoli,
Falakdin bo‘lmasun, yo Rab zavoli.

“S.I.” dostonining X bobida ham B.M. “Xilofat taxtining toj-u taxt zebandasi, saltanat tojining mulk baxshandasi, jahondorlik kishvarining sohib sariri, mehri muniri”, deb madh etadi.

Agar shohlik va saltanat ko‘z bo‘lsa, bu o‘sha ko‘zning nuri bo‘lmish Sulton Husayn o‘g‘li Badiuzzamondur, deya ta’kidlaydi hamda shahzoda barcha go‘zal fazilatlar sohibi sifatida talqin etiladi. “Damodamki, bo‘lsun mumiddi hayot” deya ulug‘ shoir Badiuzzamon Mirzoga “hayoting va umring dam-badam uzun bo‘lsin” deb duo shaklida go‘zal tilak bildiradi. N. mazkur

madh matnida qo‘llagan “toj-u zebandasi” sifatlashini mazkur dostonning 11-bobida o‘zi ma’lumot bergan shohlardan faqat Hushang shohga nisbatan ham ishlatadi:

Yana bir jahondor Hushang edi
Ki, zebandayi toj-u avrang edi.

N.ning “M.” asarida ham B.M.ga bag‘ishlangan qimmatli maktublari bor, shuningdek, ustozi Abdurahmon Jomiyga bag‘ishlab yozgan “X.M.” asari xotimasida Jomiyning B.M.ga, B.M.ning esa Jomiyga bo‘lgan ustoz-shogirdlik munosabatlari haqida ham to‘xtalib o‘tgan: N. tasviri va talqiniga asoslanib aytamizki, B.M. Husayn Boyqaroning o‘g‘illari orasida eng odili va tadbirkori hamda adolatpesha, ilm-u ma’rifat va hunar ahliga muruvvatli hukmdor bo‘lgan. U o‘z saroyida olim, shoir va san’atkorlarni yig‘ib, anjumanlar o‘tkazib turgan. Shuning b-n birga u o‘zi ham turkiy va fors tilida go‘zal g‘azallar bitgan. Umuman olganda, N. badiiy asarlarida aks ettirgan B.M. siymosi orqali davlat, xalq, mulkni idora qilish, ta’lim-tarbiya kabi masalalarni badiiy talqin qilgan. Adolat, insof, haq, ma’rifat, odamiylik singari umumbashariy g‘oyalarini tarannum etgan

Ad.: *Алишер Навоий. Хамсат ул-мутаҳаййирин. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ражабова Б. Навоий Бадиуззамон Мирзо ҳақида. Ўзум сори боқма, сўзум сори боқ. – Т., 2015.*

B.R.

BADIHA – she’r turi. B. hech qanday tayyorgarliksiz, to‘satdan yaratiladi. Ko‘p hollarda u muallifning hayotdagi turli vaziyatlar, holatlar, shaxslarning xatti-harakatlaridan kuchli ta’sirlanish natijasi o‘laroq yuzaga keladi. Shoirning o‘zi u-n ham kutilmagan tarzda, og‘zaki yaratilgani u-n badiha she’rlar hajm jihatidan kichik bo‘ladi va misra, bayt, ruboiy, qit’a shakllarida uchraydi. Mumtoz adabiyot tarixida ayrim shoirlarning B. g‘azallar aytgani haqida ham ma’lumotlar bor.

B. she’rlar N. ijodiga ham xosdir. Manbalarda shoirning vaziyat taqozosi b-n badihatan aytgan baytlari keltiriladi. M-n, Xondamir quyidagi voqeani hikoya qiladi: Kunlardan bir kuni shoh saroyida bir vazirni zolimligi u-n jazoga tortadilar. Jazolash vaqtida uning boshidan sallasi tushib ketadi. O‘sha yerda hozir bo‘lgan N. shohga qarab quyidagi baytini aytadi:

Chu bori sar sabuk kardiy,
Sabuk kun bori gardan ham.

aytadi:

Gadoyeki non az dari shoh just,
Biboyadki zi obi xudash dast shust.

Tarj.: Shoh jinsidan non tilagan tilanchi – o‘z suvi b-n qo‘lini yuvishi, yuvib qo‘ltig‘iga urishi kerak.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, kutilmagan vaziyatda to‘satdan ijod qilinganiga qaramay, N. B.larida sun’iylik yoxud zo‘rama-zo‘rakilik mutlaqo kuzatilmaydi va ular badiiy jihatdan yuksak saviyada turadi. Samarqandlik Bobur ismli tikuvchi yigitning iltimosi b-n B.da aytilgan mana bu muammo misolida ham bunga ishonch hosil qilish mumkin:

Qabo bar qaddi tu medo‘zad ayyom,
Baror az Qof, ey pisar, nom.

Baytda muammo b-n Bobur ismi yashiringan. Ayni paytda tikuvchining o‘z kasbida kamolotga erishuvi va dovruq qozonishi haqidagi ezgu tilak juda go‘zal tarzda ifoda etilgan.

Ad.: *Ғиёсиддин бинни Ҳумомиддин Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Т., 1967.*

Q.E.

“BADOYE’ UL-BIDOYA” (“Badiiylik ibtidosi”) – N.ning 1470–1476-yy. orasida o‘zi tomonidan tuzilgan birinchi devoni. U 777 g‘azal,

3 mustazod, 5 muxammas, 3 musaddas, 3 tarje'-band, 46 qit'a, 85 ruboiy, 10 lug‘z (chiston), 52 muammo, 10 tuyuq, 53 farddan tashkil topgan. Shu paytgacha o‘tgan biror turkiy shoir bunday mukammal devon tuzmagan edi. Devondagi 52 she'r (42 g‘azal, 5 qit'a, 2 ruboiy, 2 fard)dan tashqari barchasi "X.M." tarkibiga jiddiy tahrir b-n kiritilgan.

N.ning ijod tajribasi tarixda bag‘oyat siyrak yuzaga chiqadigan hodisadir. N.ning mazkur devoni muayyan kompozitsion qurilishga ega, salmoqli debocha b-n boshlanadi. Dastlab hamd, na't va Husayn Boyqaro madhi va devonning yaratilish tarixi b-n boshlanadi. So‘ngra devonning o‘ziga xos poetik xususiyatlari yoritiladi. N. devondagi yangiliklarni nazarda tutib, "Necha nav' ishkim, munda mar'iy bo‘lubturur (amalga oshirilibtur) o‘zga davovinda (devonlarda) ko‘rulmaydurur", – deydi va eng asosiylarini tavsiflab beradi: "Yana bir bukim, guyiyo ba'zi el ash'or tahsilidin va devon takmilidin g‘araz majoziy husn-u jamol tavsifi va maqsud zohiriy xatt-u xol ta'rifidin o‘zga nima anglamaydururlar. Devon topilg‘aykim anda ma'rifatomiz bir g‘azal topilmag‘ay va g‘azal bo‘lg‘aykim, anda mav'izatangiz bir bayt bo‘lmag‘ay. Mundoq devon bitilsa, xud asru behuda zahmat va zoye' mashaqqat totilg‘on bo‘lg‘ay".

Debocha N.ning ijod tarixidan xabar beradi. Zero, unda she'rlarining xalq ichida mashhurligi, muxlislar tomonidan muxtasar bir devoni tartib berilgani, do‘stlari muttasil da'vat etishiga qaramay, o‘zi devon tuzishga sira jur'at qilmagani, nihoyat, Husayn Boyqaro amriga ko‘ra uning nazari va tahriridan o‘tkazib, devon tuzishga kirishgani haqida ma'lumot beradi. Shu b-n birga, bu devonining boshqa devonlardan 4 ta farqini ko‘rsatib o‘tadi: Birinchisi – 32 harfning barchasiga g‘azal yozgan, holbuki, o‘zigacha tartib berilgan devonlarida 4 harfga yozilgan she'rlar yetishmasdi. Ikkinchisi – har bir harfga oid g‘azallarni yo hamd, yo na't, yo mav'iza g‘azal b-n boshlaydiki, bu hol ilgarigi devonlarning birortasida uchramaydi. Uchinchisi – boshqalar devon tuzishdan maqsad "majoziy husn-u jamol tavsifi va maqsudi zohiriy xattu xol ta'rifi" deb tushunganlar. Adabiyotni tarbiya vositasi deb bilgan N. esa ko‘plab mav'iza g‘azallar yozishdan tashqari har bir g‘azalida nasihatomuz bir-ikki bayt bo‘lishiga harakat qilgan. Har qanday badiiy asar ma'rifiy fikrlar va pand-nasihatdan xoli bo‘lmasligi kerakligini ta'kidlab: "Devon topilg‘aykim anda ma'rifatomiz bir g‘azal topilmag‘ay va g‘azal bo‘lg‘aykim, anda mav'izatangiz bir bayt bo‘lmag‘ay. Mundoq devon bitilsa, xud asr-u behuda zahmat va zoye' mashaqqat tortilg‘on bo‘lg‘ay", – deb yozadi. To‘rtinchisi – shoirlar g‘azal yozganda boshdan-oyoq bir mavzu asosida shakllantirmaydilar, baytlarning o‘zaro bog‘lanishiga e'tibor qilmaydilar, natijada "agar bir bayt mazmuni visol bahorida guloroyliq qilsa, yana biri firoq xazonida xornamoyliq qilibdurur". N. nazarida bu hol ham "munosabatdin yiroq va muloyamatdin qiroq ko‘rundi. Ul jihatdin sa'y qilildikim, har mazmunda matla'e voqe' bo‘lsa, aksar andoq bo‘lg‘aykim, maqta'g‘acha surat haysiyatidin muvofiq va ma'ni jonibidin mutobiq tushkay".

Diqqat qilinsa, navqiron shoir zohirni botindan ajratmaslik, suvratni siyratga uyg‘unlashtirish, majozni haqiqat talqiniga yetkazishga alohida urg‘u bergan. Demak, N. "B.B." devoni orqali she'r mohiyati, sifati, shoirlik xizmatini tubdan o‘zgartirishni ko‘zlagan. She'rda, shoirlikda ruh va ohang eskirmaydi, iztirob va dard quvvatsizlanmaydi. Ishq yig‘latur, dard so‘zlatur deyilganidek, ko‘ngil dardi, ruh iztirobidan yaralgan she'rning ta'sir va taassurot kuchi hamisha yangi, hamisha yangilanish xususiyatiga egadir:

Ey Navoiy, dardliq nazmingni dard ahli bilur,
Dardsiz dog‘i bo‘lur oni o‘qug‘ach ahdi dard.

She'r ahli botin, ahli ma'ni, ahli dard, ahli muhabbat, ahli irfon va ahli haqiqat ma'naviy ehtiyojini ifodalash u-n yoziladi. N. nazmiga jon fido qilish darajasiga yetgan ana shu muxlislar suyukli shoirlarining yoshlik ilhomidan yaralgan she'rlarini jamlab bir devon tuzishgan: "xaloyiq arosida ming bayt-ikki ming bayt ortug‘roq-o‘k-

sukrakkim o‘zlari jam’ qilib erdilar, bag‘oyat mashhur bo‘lub erdi”.

Xullas, debochadagi fikr-mulohazalar N. yigitligidayoq tafakkur va mohiyat qiroli deyishga to‘la asos beradi.

Ranj ko‘rmay kishi toparmu farog‘?!
Ko‘ngli o‘rtanmayin yonarmu charog‘?!

Tuxm yerga kirib chechak bo‘ldi,
Qurt jondin kechib ipak bo‘ldi.

Lola tuxmicha g‘ayrating yo‘qmu?!
Pilla qurticha himmating yo‘qmu?!

Bundan taxminan besh yuz ellik yil muqaddam bitilgan ushbu misralar ma’no, qiyos, tanbeh va hukm e’tibori b-n o‘sha-o‘sha ahamiyatini saqlab turibdi. N.ga yaqinlashish, asarlarining ma’no-mohiyatini to‘g‘ri anglash u-n uning sharh, izoh, e’tirof mazmunidagi fikrlariga ham ko‘proq diqqat etish kerak. “Ishqim oshubi tug‘yonida, – deyiladi boshqa debochada, – har suubatkim(qiyinchilik, azob) yuzlanur erdi, chun bir hamdard rafiqim yo‘q erdikim, dardimdin shammae (biroz, ozroq) izhor qilg‘aymen, biror bayt birla ul hol mazmunin nazm qilib ko‘nglumni xoli qilur erdim va jununum shiddati g‘alayonida har oshubkim, ollimg‘a kelur erdi, chun hamzabon mushfiqim yo‘q erdiki, maxfiy o‘tumni oshkoro etgaymen, biror matla’ bila ul ma’noni ado qilib, qattig‘ holimni sharh etar erdim”.

“B.B.”dagi she’rlar, ayniqsa, g‘azal, ruboiy, tuyuq, qit’a, fardlari N.ning san’atkorlikda naqadar ilgarilaganini ko‘rsatib turibdi. Bir ruboiyda o‘qiymiz:

Gar oshiq esang, mehr-u vafo qilma havas,
Dard istavu daf’ig‘a davo qilma havas,

Hijron-u visol mutlaqo qilma havas,
Dildoringdin g‘ayri rizo qilma havas.

Oshiq bo‘lsang-u, mehr-u vafoni havas qilmasang. Dard tilasang-u, davosi yo shifosini xayolga keltirmasang. Visol nima-yu, hijron nima mutlaqo farqlamasang. Bunday ahvoldagi kishiga dildor qanday nazarda qaraydi? Bu ham mubham. Gap shundaki, “B.B.”da talqin etilgan g‘oya, mavzu, tushuncha va haqiqatlarning tamalini ruhoniy ishq, irfon, junun, faqri fano va talvin tashkil etadi. Undagi “Har gadokim, bo‘ryoyi faqr erur kisvat anga”, “Vahki, rasvomen yana devonavu oqil aro”, “Er tutar ko‘nglumda gardundin judo bo‘lg‘on balo”, “Junun toshi urub har yon yangi dog‘imni afgor et”, “Buzuq ko‘ngulga fano bo‘lsa kom cheksun ranj”, “Parim bo‘lsa uchub qochsam ulusdin to qanotim bor”, “Chorayi kor istabon bechoraliq ko‘nglum tilar”, “Jamoateki, junun man’ini manga qilasiz”, “Ey ko‘ngul, yer-ko‘k asosin asru bebunyod bil” kabi misralar b-n boshlanadigan o‘nlab g‘azallar mazkur gapga misol bo‘la oladi. Shoir, xususan, junun, fano, irfon sohiblarini ko‘ngliga yaqin ko‘radi.

Navoiy nazmidurur yaxshi gar quloq solsang,
Tarannumeki qilur o‘zi birla ahli junun.

Ma’naviy salomat va hurlik himoyasida N. har nimadan ortiq fanoning quvvatiga ishonadi:

Riyovu ujb-u hasad daf’in et fano bilakim,
Ketar bu doru ila muncha muxtalif amroz.

“B.B.” kitobi N.ning shoirlik, oshiqlik, oriflik, rindlik, mutasavviflik, faylasuflik qiyofasini gavdalantiradigan bir badiiy ko‘zgudir. Unda shoirning davr, zamon, jamiyat, she’riyat, millat, din va irfonga qarashlari birinchi bora mukammal poetik ifodasini topgan. N. zaruriyat sezilsa, quvonchni qayg‘udan, muvaffaqiyatni mag‘lublikdan, baqoni fanodan, navoni esa benavolikdan axtargan va topa bilgan san’atkor. Shu nuqtayi nazarida sobitligi tufayli ham u:

Navoiy, benavoliq shevasin berma ilikdinkim,
Navo har kimki istabtur, topibtur benavolig‘din, –

degan. Mumtoz shoirlarning “balo”parastligi, “g‘am”sevarligi, “dard” va “kadar”ga ishtiyoqi

to‘g‘risida o‘ylab, xolis xulosaga kelinmagan. Demak, N. shaxsiyati va ijodiyotini bilish ham shunga yarasha bo‘lgan. Boshqacha aytganda, zohir botinni bilishga, suvrat siyrat mohiyatini anglashga yo‘l qo‘ymagan.

“B.B.” XV asr adabiy hayotida katta voqea bo‘lgan edi. Chunki u mavzu doirasining rang-barangligi, janriy tarkibining xilma-xilligi va g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari jihatidan salaflarining ham, zamondoshlarining ham devonlaridan alohida ajralib turar edi. Husayn Boyqaro hukmi, madadi, maslahati va muharrirligi b-n dunyoga kelgani jihatidan shoir ushbu devonini hukmdor do‘sti va homiysi nomi b-n ziynatlaydi.

Devonda g‘azallar boshlanishiga, umuman, boshqa janrlardagi she’rlariga ham sarlavha qo‘yilmagan. Devon hamd va na’t g‘azallar b-n boshlangan. “B.B.”dagi “Ashraqat min aksi shamsil – ka’si anvorul – Xudo, Yor aksin mayda ko‘r, deb jomdin chiqti sado” matla’li ilk g‘azal “X.M.” kulliyotidan ham birinchi o‘rin olgan g‘azaldir.

N.ning nigohi qaratilgan, uning muborak qo‘li tekkan narsa yoki yodgorlik millat, madaniyat va adabiyotimiz u-n muqaddas va unutilmasdir. “B.B.” daho shoirning shaxsan o‘zi tuzgan she’riy majmuasidir. Bizgacha uning bir necha qo‘lyozmalari yetib kelgan. O‘tgan asrda u birinchi marta u ko‘ptomlik N. “Mukammal asarlar to‘plami”da bosildi. Va devonning bir necha qadimiy qo‘lyozmalarning foto nusxalari b-n solishtirib, filologiya fanlari nomzodi Sh.Sharipov chop ettirgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т., 1976.*

E.O.

“BADOYE’ UL-VASAT” (“O‘rta yoshlik go‘zalliklari”) – “X.M.” devonlar turkumining uchinchi devoni. Shoirning o‘z ta’biri b-n aytganda, u umr fasllarining kuzi va tiriklik bog‘i bargrezonining nishoni hisoblangan 35 yoshdan 45 yoshgacha bo‘lgan davrda yozilgan she’rlardan tuzilgan. Lekin bunday nomlanish shartli bo‘lib, unga boshqa davrga mansub she’rlari ham kiritilgan. M-n, “Hiloliya” qasidasi 1469-y. da – N.ning 28 yoshida yozilgan bo‘lib, yigitlik davriga tegishli bu asar o‘rta yoshlikda yozilgan she’rlardan iborat “B.V.”ga kiritilgan. H.Sulaymonning taxminiy tasnifiga ko‘ra, undan jami 740 ta she’r o‘rin olgan bo‘lib, shundan 132 tasi yoshlik, 75 tasi yigitlik, 106 tasi o‘rta yoshlik, 427 tasi qarilik davriga mansub. Umuman, “B.V.”da 650 g‘azal, 2 muxammas, 2 musaddas, 1 mustazod, 1 tarje’band, 1 qasida, 60 qit’a, 10 lug‘z (chiston), 13 tuyuq mavjud.

“B.V.”da ham boshqa devonlari kabi, avvalo, hamd g‘azallar keladi. Devondagi ilk besh g‘azal hamd g‘azallardir. Ularda Alloh taoloning ism hamda sifatlari keltirilib, mutafakkir va mutasavvif shoir tomonidan sharhlanadi. Bu g‘azallarda N. ma’naviy hol-u maqomi yaqqol ko‘rinadi. Devonda Rasulullo (s.a.v) vasf etilgan o‘nga yaqin na’t g‘azallar kelib, dunyoning yaratilishi, xotami nabiy Muhammad (s.a.v)ning muhibligi to‘g‘risida bahs yuritiladi. Mazkur g‘azallarda, ayniqsa, me’roj voqeasiga urg‘u beriladi. Devon orifona va oshiqona g‘azallardan iborat. “Yoyib orazda mushkin hollarni sunbulung domi” deya boshlanuvchi so‘nggi g‘azali maqta’si murshidi komili Abdurahmon Jomiy yodi b-n tugaydi:

Navoiy fard-u behush o‘lg‘anin
demang qachondindur,
Hamondinkim, ani mast etti vahdat
jomidin Jomiy.

“B.V.”da g‘azaldan so‘ng 7 baytdan iborat mustazod keladi:

Ne vo‘smavu ne kesmadur ul zulfi
sumansoy, ne g‘amzai jodu,
Mashshota sanga zoli falakdur magar,
ey oy, xurshid anga ko‘zgu.

Ushbu mustazod “B.B.” devonida ham keltirilgan.

Devondagi ikki muxammasning *“Sharbati “Yuhyil izom” erni mayi nobindadur”* deya boshlanuvchi birinchisi Mavlono Lutfiyga taxmisdir. Ushbu muxammas “B.B.” devonida ham mavjud.

“Jonim o‘rtarga ul o‘tluq chehra gulzori Xalil” misrasi b-n boshlanuvchi ilk musaddas Lutfiy g‘azaliga, *“Ishq zor etti xaloyiq ibtilosidin meni”* deya boshlanuvchi ikkinchi musaddas esa Husayniy g‘azaliga bog‘langan.

“X.M.”da to‘rtta tarje’band bo‘lib, “B.V.”da *“Ey kirpiki nesh-u ko‘zi xunxor, Jonimni necha qilursen afgor?”* bayti b-n boshlanuvchi tarje’bandi kiritilgan. 8 baytdan iborat 7 bandli tarje’band jami 56 baytni o‘z ichiga olgan. Har band oxirida ayni bayt takrorlangan:

Yodingni qilay harifi majlis,
Fikringni etay ko‘ngulga munis.

A.Qayumov mazkur tarje’bandni “Sevginoma” deb atagan.

“B.V.” devonidan “X.M.” kulliyotidagi yagona qasida o‘rin olgan. “Hiloliya” nomi b-n mashhur qasida do‘sti, hammaslagi H.Boyqaroga bag‘ishlangan.

Devonda 60 ta qit’a bo‘lib, 9 va 10-qit’alardan tashqari barchasi sarlavhalangan. Avvalo, *“Haq taolo maxzanin anglabki xoli bo‘lmamish”* deya boshlanuvchi hamd-qit’a, so‘ngra *“Bu yo‘lda kimki nabi’ shar’idin chiqardi qadam”* deya boshlanuvchi na’t-qit’a beriladi. 40-qit’ada N. o‘z nazmi xususida shunday deydi:

Navoiy she’ri to‘qquz bayt-u,
o‘n bir bayt-u, o‘n uch bayt,
Ki lavh uzra qalam ziynat berur
ul durri maknundin.
Bukim albatta yetti baytdin
o‘ksuk emas, ya’ni
Tanazzul aylay olmas rutba ichra
yetti gardundin.

“Qalam”, “Tanga”, “Igna”, “Miqroz”, “O‘q”, “Anor”, “Bel”, “Yumurtqa”, “Poki”, “Parvona” nomli 10 ta lug‘z N.ning shoirlik mahorati, turkiy tilning imkoniyatlarini ko‘rsatib bergan. Ilk turkiy lug‘zlar N. qalamiga mansubdir.

“B.V.” devoni 13 ta tuyuq keltirilishi b-n yakunlanadi. Mazkur tuyuqlarning 10 tasi “B.B” devonida ham mavjud.

Ad.: *Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик, 3-жилд. – Т., 2011; Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т., 1976.*

E.O.

“BADOYE’ UL-VAQOYE” – Zayniddin Vosifiyning 1517-y.da yozila boshlab, umri oxirigacha davom etgan asari. Nasrda esdalik tarzida bitilgan bu asar ko‘plab she’rlarni ham o‘z ichiga oladi. Vosifiyning “B.V.”da keltirilgan qasida, g‘azal va qit’alari buyuk salaflari javobida aytilgan bo‘lib, zamon hokimlarining birortasiga bag‘ishlangan. Bu she’rlar badiiy jihatdan yetuk bo‘lib, turli-tuman lafziy va ma’naviy san’atlarga boy. Lekin “B.V.” fors-tojik adabiyotida yuksak nasr namunasi sifatida mashhur.

“B.V.” debocha, “guftor”, “doston”, “hikoyat” nomlari b-n atalgan 54 fasl (Leningrad nusxasida 46 fasl)dan iborat. Yagona syujet chizig‘iga ega emas. Fasllarni bir-biriga bog‘lovchi umumiy zanjir muallif siymosi deyish mumkin. U ham bosh qahramon, ham hikoya qiluvchi roviy hisoblanadi. Ba’zi bir hikoyatlarda bir necha voqea va hikoyatlar birga keladi. Ikki xil xotiralar o‘rin olgani jihatidan asarni 2 qismga bo‘lish mumkin: 1-qismida Vosifiyning Movarounnahr, xususan, Samarqandda boshidan kechirgan, ko‘rgan va eshitgan voqealar o‘z aksini topgan; 2-qism Toshkent va Shohruxiyada yozilgan bo‘lib, unda muallifning Hirotda ko‘rgan-kechirgan voqealari yodga olinadi. Bu qismda hayotiy hikoyatlar b-n birga muallif boshqalardan eshitgan va turli manbalardan olgan rivoyatlar ham keltiriladi. Ularni Vosifiy Toshkent hokimi Keldimuhammadxon huzurida naql qilib, keyin qayta ishlab kitobiga kiritgan.

“B.V.”da N., Binoiy, Kotibiy, Darvesh Dehakiy kabi shoirlar hayoti va faoliyati ham keng

yoritiladi, ular b-n bog‘liq ibratli va qiziqarli voqealar hikoya qilinadi. Jumladan, N.ning fazilatlari, nozikmijozligi, uning Husayn Boyqaro, Sohib Doro, Majdiddin Muhammad va boshqalar b-n munosabatlariga oid qator hikoyatlar keltiriladi. Albatta, muallif o‘zining buyuk shoir b-n tanishuvi, muammo yechish bo‘yicha uning imtihonidan o‘tgani haqida yozishni ham unutmaydi. Asarda ko‘plab etnografik va toponimik, kasb-hunar ahli haqidagi ma’lumotlar ham o‘rin olgan. “B.V.” sodda til, ravon uslubda, badiiy asar kabi qiziqarli qilib yozilgan.

“B.V.”ning ilmiy tanqidiy matni taniqli sharqshunos olim N.Boldirev tomonidan uning 25 ta qo‘lyozma nusxasini o‘zaro qiyoslash asosida yaratilib, Moskvada 2 jildda nashr etilgan (1961). – Tehronda ham asarning to‘liq nusxasi 2 jildda e’lon qilingan (1971–72).

“B.V.” dunyoning ko‘plab tillariga, jumladan, o‘zbek tiliga ham tarjima qilingan. Dastlab, 1826-y.da Xivada Dilovar tomonidan o‘girilgan. Keyin N.Norqulov uning qisqartirilgan ommabop tarjimasini amalga oshirgan. (1979)

Ad.: *Зайниддин Восифий. Бадоеъ ул-вақоеъ. – Т., 1979; Айний С. Восифий ва хулосаи Бадоеъ ул-вақоеъ. – Душанбе, 1956.*

E.O., M.A.

BAYONIY (Taxallusi, to‘liq ismi: Muhammad Yusufbek Bobojonbek o‘g‘li Bayoniy (1858–1923, Xiva) – shoir, tarixchi, musiqashunos, xattot, tarjimon. Serqirra iste’dod sohibi o‘zbek adabiyoti tarixida o‘ziga xos o‘rin tutadi. B. Xivada xonlik qilgan Eltuzarxon (1804–1806) avlodidan bo‘lib, otasi Bobojonbek Olloberdi to‘raning o‘g‘li bo‘lib, Eltuzarxonning nabirasidir. Yoshligidan alohida layoqatlari b-n ajralib turgan va o‘z oldiga katta maqsadlarni qo‘ygan Muhammad Yusufbek Xivadagi Sherg‘ozixon madrasasida tahsil ko‘rgan. Suls, kufiy, rayhoniy, shikasta kabi arab yozuvining nozik va murakkab xat turlarini yaxshi o‘zlashtirgan, tanbur chertish va g‘ijjak chalishda mohir bo‘lgan. U, hatto, tib ilmidan ham yaxshigina xabardor bo‘lgan.

B.ning devoni, Xorazm tarixiga oid 2 asari va tarjimalari bizgacha saqlanib qolgan. U Sharq mumtoz she’riyatining g‘azal, mustazod, muxammas, musaddas, musabba, tarje’band, ruboiy, masnaviy, qasida kabi yetakchi janrlarida mahorat b-n ijod qilib, Hofiz Sheroziy, Kamol Xo‘jandiy, N., Fuzuliy, Munis, Ogahiy an’analarini davom ettirgan. Avaz O‘tar b-n adabiy hamkorlik qilgan. “Devoni Bayoniy” she’rlar to‘plamini tuzgan.

Zullisonayn shoir sifatida fors-tojikchada ham mahorat b-n qalam tebratgan: bu tildagi merosi jami 1379 baytdan iborat bo‘lib, 139 g‘azal, 11 muxammas, 3 musallas, 37 ruboiy, 5 qit’a va 5 ta’rixdan iborat. Ular Feruz amriga ko‘ra, Xivada toshbosmada chop etilgan “Yetti shahzoda shoir devoni” tarkibidan o‘rin olgan.

Muarrix sifatida ham qalam tebratgan. “Shajarayi Xorazmshohiy” (inv. № 9596), “Xorazm tarixi” (inv. № 7421), “Devoni Bayoniy” (inv. №№ 1120, 7106, 6666) asarlari qo‘lyozmalari O‘zR FA Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda.

B. Xiva adabiy muhitining boshqa namoyandalari kabi N.ni ijod yo‘lida o‘ziga ustoz va rahnamo deb bilgan, asarlarini sevib mutolaa qilib, buyuk so‘z san’atkoridan mahorat sabog‘ini olgan, undan ta’sirlanib va ilhomlanib qator bayt-u g‘azallar bitgan. Jumladan, N.ning “Aylab”, “Bo‘lmasa-bo‘lmasun, netay” kabi qator g‘azallariga tatabbu’lar qilgan, g‘azallariga taxmislar bog‘lagan, n.yona bayt-u misralar ijod qilib, ularda salafining fikrlarini davom ettirgan va rivojlantirgan, timsol-u tashbehlarining yangi qirralarini ochgan. Jumladan, “Bir armaniy go‘zal ishqida Ko‘hkan (Tog‘ qazuvchi – Farhodning laqabi) kabi g‘am balosining toshbo‘roniga tayyorman” ma’nosidagi mana bu bayti “F.Sh.” dostoni ta’sirida yaratilgani shubhasiz:

Ohkim, bir armanivash ishqidin
chun Ko‘hkan,
Sangboroni baloyi g‘amga
tayyor o‘lmisham.

B.ning “Bo‘lmasa-bo‘lmasun, netay” radifli g‘azali esa N.ning ayni radifdagi g‘azaliga tatabbu’ ekanligi shubhasiz:

Sabr bu beqarora yo‘q,
bo‘lmasa-bo‘lmasun, netay,
Chora bu oh-u zora yo‘q,
bo‘lmasa-bo‘lmasun, netay.

B.ning:

Bir oqshom gul yor gul uzorin beniqob aylab,
Xiromon keldi kulbamga karam
birla shitob aylab, –

bayti b-n boshlanadigan g‘azali esa N.ning mashhur:

Tun oqshom keldi kulbam sori ul
gulrux shitob aylab,
Xiromi sur’atidin gul uza xo‘ydin gulob aylab, –

g‘azaliga tatabbu’dir.

B. ayni g‘azalga tatabbu’ sifatida:

Ne xush tundurki, nogah kelsa dilbar
fathi bob aylab,
Yuzini tiyra kulbamga tuluyi oftob aylab, –

misralari b-n boshlanadigan g‘azal ham bitadi.

B. tatabbu’lari N. g‘azallariga taqlid bo‘lib qolmay, muayyan mavzu, vazn, qofiya va radifda salafidan ilhomlanib, o‘ziga xos ohorli g‘azallar yaratgan.

B. N.ning “Sho‘x ikki g‘izolingni...” deb boshlanadigan g‘azaliga juda go‘zal taxmis ham bog‘lagan. Jumladan, g‘azalning hikmatli so‘z darajasiga ko‘tarilgan maqta’dan oldingi baytidagi “Ko‘k atlasi ustida agarchi yuz yil o‘ynab-kulib o‘ynasang ham foydasi yo‘q – bir kuni kelib jisming tuproq tagidan joy olib, ustingdan tosh bostiriladi”, – mazmunidagi baytiga ularni izohlaydigan va o‘quvchini tushunishga tayyorlaydigan “Ey zor ko‘ngil, bu o‘tkinchi dunyo odatini yaxshi bilib ol – hech kim unda shod-u xurram bo‘lib abadiy yashamagan. Ey g‘ofil, shuning uchun mulohaza yuritib, shundan ogoh bo‘lki...” – ma’nosidagi misralarni qo‘shadi va u tomonidan qo‘shilgan misralar salafi bayti b-n chambarchas uyg‘unlik hosil qiladi:

Bu dorifano da’bin, ey zor ko‘ngul, sen bil,
Kim munda qolur jovid payvasta bo‘lib xushdil?
Andisha qilib mundin, ogoh bo‘l, ey g‘ofil,
Xoro tubida yotg‘ung, yo‘q sud, agar yuz yil
Ko‘k atlasi ustida jismingni yotib agnat.

B. qator n.yona bayt-u misralar ham ijod qilgan. M-n, uning “Kamoli ishq oshiqg‘a qilur ma’shuqni oshiq” misrasi N.ning “Ishq agar komildurur, oshiq qilur ma’shuqni” misrasiga hamohang jaranglaydi. Ma’shuq bir qiyo boqib, oshiqni “naqshi devor”, ya’ni surat aylab ketgani haqidagi mubolag‘alarga ham B. g‘azallarida duch kelamiz.

Ma’lum bo‘ladiki, N. adabiy merosi B.ning shoir o‘laroq shakllanishi va mahorat kasb etishida o‘ziga xos tajriba ustaxonasi bo‘lib xizmat qilgan.

Ad.: *Баёний. Ғазаллар. – Т., 1962; Мунировр Қ. Хоразмда тарихнавислик. – Т., 2002; Жумаев Н., Адизова И. Бизга пинҳон, муаррихга аён мозий. – Т., 1991; Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1-жилд. – Т., 2000.*

E.O.

BAYZOIY (XV asr, Hisor) – shoir. N. “M.N.” tazkirasida ma’lumot berishicha, Mahmud Barlos Hisordan Hirotga elchi bo‘lib kelganida u b-n birga kelgan. Bu yerda xasta bo‘lib qolib, N. qurdirgan muolaja markazi bo‘lmish “Dor ush-shifo” (“Shifo saroyi”)da davolangan. Keyin yana Hisorga qaytib ketgan. Ijodidan namuna sifatida bir matla’sini keltiradi:

Bizan bar sinayi man xanjar-u afkan sar az tan ham,
Dar in xonayi torikro bikshovu ravzan ham.

Tarj.: Mening ko‘ksimga xanjar ur, boshimni tanimdan judo ham qil. Bu qorong‘i uy, ya’ni ko‘ngil sari bir daricha ham och.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

E.O.

BAYT (ar. – uy) – aruz tizimida har biri bir necha rukndan iborat qofiyali yoki qofiyasiz ikki misra. “Baytniki uy oti birla atabdurlar, munosabati muni debdurlarki, uyning chun binosi to‘rt rukn biladur, bu baytning ham binosi to‘rt rukn biladur va uy ichida uy mato’idin ko‘b nimalar bo‘lur, bu baytda ham ma’ni haysiyatidin ko‘p nimalar bo‘lur, hatto uyning mahzunot va maxfiyoti o‘rnig‘a ham munda maxfiy va maktum xayolot va maoniy topsa bo‘lur, bu munosabatlardin oni “bayt” debdurlar”, – deb yozadi bu haqda N. “M.A.” asarida.

Sharq she’riyatidagi eng kichik badiiy butunlik B. deyiladi. G‘azal, qasida, qit’a, masnaviy kabi asarlarning bir butun ikki misrasi. B. asosiga qurilgan lirik janrlar bandga emas, B.ga ajratiladi. Ammo har qanday 2 misraning B. deb atalishi to‘g‘ri emas. Chunki B. ritmik intonatsiyasi va mazmun jihatidan nisbiy mustaqillik kasb etishi, ya’ni band maqomiga ega bo‘lishi kerak.

Yagona B.dan tashkil topgan eng kichik lirik janr ham mavjud bo‘lib, u fard deyiladi. Shuningdek, she’riy parchalar ham B. deb yuritiladi.

B. 4, 6, 8, ba’zida 12, 16, 20, 36 rukndan tashkil topishi mumkin. 4 ruknli B.lar murabba’ (to‘rtlik), 6 ruknli bo‘lsa musaddas (oltilik), 8 ruknlisi musamman (sakkizlik), 12 ruknliligi mustazod, undan ortiqlari mutatavval (ko‘p ruknli) deb ataladi.

B.ni tashkil qiluvchi ruknlar o‘rniga ko‘ra ham nomlanadi. 1-misraning 1-rukni sadr, oxirgi rukni aruz, 2-misraning 1-rukni ibtido, oxirgi rukni zarb, oradagi b. ruknlar esa hashv deb yuritiladi.

G‘azal, qasida kabi janrlarning birinchi B.i o‘zaro qofiyalanadi (q. Matla’), qolgan B.larning ikkinchi misralari matla’ b-n qofiyadosh bo‘ladi. Qit’a B.lari misra aro qofiyalanadi. Masnaviyning har B.i o‘zaro alohida-alohida qofiyalanadi. Fardda misralar o‘zaro qofiyalanadi, lekin ba’zida misralari o‘zaro qofiyalanmagan fardlar ham uchraydi. M-n, N. 86 ta farddan 4 tasi qofiyasiz. Jumladan:

Bel-u og‘zidin, dedilarkim, degil afsonaye,
Boshladim filholkim: “Bir bor edi,
bir yo‘q edi...”.

Nasriy asarlar tarkibida ham u yoki bu fikr tasdig‘i u-n goh qofiyali, goh qofiyasiz B.lar keltiriladi. Lekin N.ning “M.Q.” pandnomasidagi barcha B.lar qofiyali. M-n:

Haq yo‘linda kim senga bir harf o‘qutmish ranj ila,
Aylamak bo‘lmas ado oning haqin yuz ganj ila.

Tarje’band, tarkibband kabi janrlarda B. bandlarni bog‘lovchi vosita bo‘lib xizmat qiladi va shunga binoan vosita B. deb ataladi. M-n, N. ning:

Ketur, soqiy, ul mayki, subhi alast,
Aning nash’asidin ko‘ngul erdi mast, –

deb boshlanadigan 10 bandli (100 B.) mashhur tarje’bandining har bandi

Xarobot aro kirdim oshuftahol,
May istarga ilgimda sing‘on safol, –

bayti b-n tugallanadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т., 1998; Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2010; Асадов М. Соқийнома: тарих ва поэтика. – Т., 2020.*

M.A.

BAYT UL-HAZAN (bayt ul-ehzon, bayt ul-ahzan, bayt ul-huzn, kulbayi ahzon) − g‘am uyi, kulfat kulbasi. Bu tushuncha Ya’qub payg‘ambar hayoti b-n bog‘liq bo‘lib, sevimli jigarbandi Yusufdan ajralgach, u yo‘l bo‘yida bir hujra tiklab, kecha-kunduz unda toat-ibodat qilib yig‘lar edi. Bu haqda N. “T.A.H.” asarida shunday yozadi: “Ya’qub (a.s.) Yusuf (a.s.) firoqida xalqdin ulfat uzub va farzandlarin unsi munqate’ qilib, go‘sha tutub, “Bayt ul-ahzon” maqomi bo‘lub erdi”. Keyinchalik u “Bayt ul-ahzon” (“Bayt ul-hazan”) “G‘am uyi” nomi b-n mashhur bo‘lib ketadi. Sharq mumtoz she’riyatida nomurod oshiqning xonasini, shuningdek, so‘ngsiz dard-u g‘amda, chorasiz ahvolda qolgan kishining uyini, hayotini, ayni paytda g‘amxona dunyoni B.H.ga nisbat berish bir an’ana tusini olgan. N. ijodida ham bu istiloh o‘zining barcha ko‘rinishlarida ko‘plab uchraydi. M-n, quyidagi baytda o‘z ahvolini Ya’qub (a.s.) b-n qiyoslaydi:

Bayt ul-ahzon bila Ya’qubni Yusuf g‘amida
Ko‘rmagan hajrida ko‘rdeg meni vayronim bila.

Mana bu baytda esa o‘z uyini kulbayi ehzonga o‘xshatadi:

Ul uzor-u xat uchun har dam Navoiy chekkach oh,
Kulbayi ehzonig‘a yo tushti o‘t, yo bo‘ldi dud.

Boshqa bir baytda esa buzuq ko‘nglini “kulbayi ehzon”ga nisbat beradi:

Bir Navoiyning buzug‘ ko‘ngliga evrul rahm etib,
Netti gohi Yusuf etsa kulbai ehzonni tavf.

Yana bir baytida esa N. nazmining har bir harfi ishqing g‘amining harfi ekani jihatidan uning har bir baytini B.H. desa bo‘ladi deb lutf etadi:

Chun Navoiy nazmining har harfidur
sharhi g‘aming,
Desa bo‘lurkim erur har bayti bir
bayt ul-hazan.

Yana:

Navoiy hazin bo‘lsa bog‘ ichra tong yo‘q −
Ki, sensiz bu mahzung‘a bayt ul-hazandur.

Chu ul gulshandin o‘ldung ruhparvar,
Yonib bu kulbayi ahzon sari es.

Bu yerda shoir yor ko‘yidan jonbaxshlik kasb etib, keyin mening g‘amxona uyim sari es, deb saboga murojaat qilmoqda.

Mana bu baytda esa men u-n bog‘-u gulzor yorning go‘zal yuzidir, agar u bo‘lmasa, bog‘ning g‘am uyidan farqi qolmaydi deydi:

Manga bog‘-u gulzor aning orazidur,
Gar ul bo‘lmasa, bayt ul-ahzon erur bog‘.

Tasavvufiy ma’noda esa Haqdan ayrilgan banda u-n bu firoq olami − dunyo B. H.dir.

N. B. H. istilohidan turli badiiy maqsadlarda foydalangan.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. – Душанбе, 1987; Баҳори Ажам. Жилд 1. – Теҳрон, 1379 (ҳ. ш.); АНАТИЛ. 1-жилд. – Т., 1983.*

E.O.

BAYT UL-MA’MUR (ar.) – to‘rtinchi osmondagi zumrad yoki yoqutdan yasalgan masjid. U Ka’baning tepasida bo‘lib, undan biror narsa tushib ketsa, to‘g‘ri Ka’baning tomiga tushadi. To‘fon voqeasidan oldin u Ka’baning o‘rnida bo‘lib, farishtalar ziyoratidan hamisha obod bo‘lgani u-n ma’mur nomini olgan. Keyin to‘rtinchi osmonga ko‘tarilib, Ka’baning ro‘parasida joylashgan. N. “G‘.S.” devoniga kirgan mashhur tarje’bandida bu haqda shunday yozadi:

Manga dayr o‘ldi chu Bayt ul-Ma’mur,
Dayr pirig‘a bo‘libmen ma’mur.

"B.B." devoniga yozgan debochasida esa tajnis san'ati vositasida o'zining baytini B.M.ga o'xshatadi:

Bu vayron tab'ni bayt etsa mastur,
Tutub shuhrat nechukkim bayti ma'mur.

Ad.: Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. – Душанбе, 1987; Фарҳанги забони тожики. Жилд 1. – М., 1959.

E.O.

BAYTI AQSO – Bayt ul-muqaddas va undagi masjid. Aqso uzoqda degan ma'noni anglatadi. Bayti Aqso, Masjid al-aqso nomlari N. asarlarida ham uchraydi. N. faqat tilga olib o'tish b-n cheklanmay, ular haqida batafsil ma'lumotlar ham beradi. Bu ma'lumotlar Bayt ul-muqaddas va Masjidi Aqsoning bino etilish sababi, uning kimlar tomonidan qurilgani kabi masalalarga oydinlik kiritadi.

"T.A.H."da bayon etilishiga ko'ra, Dovud (a.s.) zamonida Haq Taolo Bani Isroilga toun kasalini yuborgan. Bu vaqtga kelib Bani Isroil son jihatidan juda ko'payib ketgan edi. "Va ul vaqtda Bani isroil qalin bo'lub erdikim, adadin kesin bilmas edi. Tengri taolo toun marazi bila alarni kam qildi", – deb yozadi N. bu haqda. Toun juda ko'p kishilarning yostig'ini quritgan. Uch kecha-kunduz ichida bir yuz yetmish kishi o'lgan. Ana shu holatda Dovud (a.s.) qavmi b-n Bayt ul-muqaddas sahrosiga chiqib, boshyalang bo'lib, Tangriga tazarru qilganlar. Tangri ularning tazarru va tavbalarini qabul qilib, toun balosidan qavmni xalos qilgan. Dovud (a.s.) buning shukriga shu yerda bir ma'bad bino qilishni buyurgan: "Dovud (a.s.) qavmining qolg'oniga buyurdikim, bu yerda Tengri taolo shukriga bir ma'bad bino qilingkim, hamisha shukri adosida ibodat qilg'aysiz".

Qurilish boshlangandan so'ng, ish yarmiga yetganda Dovud (a.s.) vafot etadi. Uning o'g'li Sulaymon (a.s.) ishini davom ettirdi. N.ning yozishicha, Sulaymon (a.s.) faqat ma'bad qurish b-n cheklanmay, bu yerda Bayt ul-muqaddas shahrini bino qiladi. N. shahar ham, masjid ham nihoyatda hashamatli va go'zal tarzda bino qilingani va tarix ahli ular ta'rifida ko'p mubolag'a qilgani xususida yozadi va ulardan ayrimlarini keltiradi. Unga ko'ra, masjid yetti xil toshdan qurilgan bo'lib, devorlari qimmatbaho javohirlar b-n bezatilgan, sahniga mayda tosh o'rniga javohir to'kilgan ekan.

N. B.A.ning keyingi taqdiri haqida ham ma'lumot beradi, uning uzoq davrlar mobaynida obod va ma'mur bo'lib turgani hamda Baxt unnasr tomonidan vayron qilinganini qayd etadi.

Ad.: Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Рабғузий. Қисаси Рабғузий. 1-жилд. – Т., 1990.

Q.E., E.O.

BAYTULLOH (ar.) – Allohning uyi. Makka shahridagi Ka'ba binosi. Uning boshqacha nomlari ham bor. Masjid ul-Haram (gunoh ishlarni qilish taqiqlangan hurmatga sazovor masjid), Bayt ul-atiq (qadimiy uy), Qibla (ibodatda yuzni o'giradigan taraf), Xonai Ka'ba (Ka'ba uyi), Baytulloh deganda Allohning uyi yoki Alloh yashaydigan maskan deb tushunmasdan, Allohga ibodat qilinadigan joy, musulmonlarning qiblagohi ma'nolarida tushunish kerak.

N. "T.A.H." asarida yozishicha, Baytullohni (Ka'ba uyini) Odam (a.s.) bino qiladi. Keyinchalik uning uchinchi o'g'li Shis (a.s.) "tosh va ganch" b-n ta'mir qiladi. Undan keyin Ibrohim (a.s.) tomonidan yana ta'mirlanadi. Muhammad (s.a.v.) tomonidan esa kofirlardan tozalangan.

N. "M.Q."ning 96-tanbehida aytadiki, zar chopon kiygan dunyoparast kishini najosat ustida yaltiragan chivinga o'xshatsa, pokiza, taqvodor kishi masjidda e'tikof o'tirgan chog'i, Qur'on orasidagi gul yaprog'iga o'xshaydi. Oradagi farq B.dir deb izohlaydi:

Biri bayt ul-Harom ichra farishta,
Biri dayr ichra shayton barcha ishta.

Ne hojat sharh qilmoqliq tafovut
Ki, Baytullohdindur farqi sobut.

Ma'lumki, hojilar haj asnosida Ka'ba haramida turib, ruhiy zavq oladilar. Lekin N. Allohga qurbat (yaqin bo'lish) haramida topgan lazzatni ulardan ustun qo'yadi.

Harimi qurb aro matlub vaslidin bo'lub mahzuz,
Yo'q andoqkim, harimi Ka'ba ichra zumrayi hujjoj.

Shoir "H.A."da ko'ngilni ta'riflar ekan, uni Ka'badan ustun qo'yadi. Chunki biri xalq sajda qiladigan makon bo'lsa, ikkinchisi Xoliq tajalli qiladigan joydir. Ka'baga safar qilishni ba'zan turli xatarlar to'xtatib qo'yadi. Shunga o'xshab, ko'ngil Ka'basini tavof qilishni ham ayrim xavotirlar man qiladi. Xavotirlar – shubhalar, vasvasalar, ikkilanishlar va hakozo.

Ko'ngul baytulharomi tavfig'a moni' xavotirdur,
Safarg'a Ka'ba sari o'ylakim bo'lg'ay xatar moni'.

N. asarlarida Ka'ba o'ziga xos ramz, ilohiy ma'no tashigan timsol, muqaddas narsalarni qiyoslash obyektidir. Shoir bundan juda ustalik b-n foydalanadi. Haqiqiy Ka'ba qarshisida maqsud Ka'basi tilga olinadi va har birining o'ziga yarasha talab va istaklari borligi shoir ifodalarida ko'zga tashlanadi. Odatda, Ka'baga boradigan odam tayyorgarligini ko'rib boradi. Hamroh topadi, yo'lga ozuqa oladi va hakozo. Maqsad Ka'basi esa buning aksi. Unga yetishish u-n tajarrud (hamma narsadan voz kechib), yo'l ozuqasini olmay qadam qo'yish kerak:

Navoiy Ka'bayi maqsud sari
gar qadam qo'ysang,
Tajarrud basdurur hamrohing-u
beto'shalig' zoding.

Qadimda Ka'baga ot va eshaklarda borishgan. Tikanli va tikansiz dala-yu cho'llardan yurishgan. Ayniqsa, xori mug'ilon (tikabuta tikan) oyoqlarga sanchilgan. Shunday qiyinchiliklarga chidagan Ka'bani ziyorat qilgan. N. Ka'badagi yo'l mashaqqatlarini eslatar ekan, solikka maqsad sari harakat qilishda odamlar ta'nasiga e'tibor bermaslikni maslahat beradi. Bu tasavvufdagi malomatiylik maqomiga ishoradir:

Istasang maqsad, qadam qo'y,
ta'n toshidin ne bok,
Ka'ba topti, bo'lmag'on xori
mug'ilondin malul.

Yuqoridagi misollardan ma'lum bo'ladiki, N. Baytulloh (Ka'ba, Bayt ul-harom) hamda maqsad Ka'basi, ko'ngul harami, maqsad harami kabi muqaddas timsol va istioraviy so'zlar vositasida tashbeh, tanosub va tazod san'atlarini qo'llab, teran ma'nolarni ifodalaydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ислом. Энциклопедия. – Т., 2017.*

S.R., Z.R.

BAYT UL-MOL (ar. – mol-mulk uyi) – 1. Islom mamlakatlarida davlatga qarashli mol-mulk. 2. Qimmatbaho narsalar saqlanadigan bino. 3. Umuman davlat xazinasi. B.ni dastlab xalifa Umar ta'sis etgan. Undagi boyliklar, asosan, xiroj, jizya, zakot, xum kabi soliqlardan to'plangan. N.ning "L.T."da quyidagi bayt keltirilgan:

Ko'z uchidin boqmay ul amvolg'a,
Borchani jam' etti bayt ul-molg'a.

Ad.: *Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик, 1-жилд. – Т., 1983; Ислом (Энциклопедия). – Т., 2004.*

M.A.

BAYRAMXON (1498, G‘azna – 1561, Gujarot) – siyosiy arbob, sarkarda, shoir. XVI asr siyosiy-ijtimoiy, madaniy-adabiy hayotida katta rol o‘ynagan Muhammad B. asli turkmanlarning bahorli qabilasidan bo‘lib, G‘azna viloyati hokimi Sayf Alibek xonadonida tug‘iladi. Onasi esa Balx hokimining qizi edi. U ilmli, ziyoli va jasur odam bo‘lgan. Bobur, Humoyun va Akbarshohlar hokimiyatini mustahkamlashga katta hissa qo‘shgan. Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob” tazkirasida ham B.ning Humoyunning “Amir ul-umaro”si ekani, barcha sohalarda hukm yuritgani, fozil va saxovatli kishi bo‘lib, ilm-u hunar ahlini qo‘llab-quvvatlagani, o‘z zamonining Hotami Toyi ekani, she’riy salohiyati balandligi haqida ma’lumot beriladi.

B. she’rlari xalqona ruhi va ohangi, yengil va ravon uslubi, sodda va ohorli tashbehlarga boyligi, oddiy va tushunarli tili b-n alohida ajralib turadi. U forsiy ijodida Sa’diy, Hofiz, Xusrav va Jomiylarga ergashgan bo‘lsa, turkiy she’rlarida N. va Bobur an’analarini davom ettirgan. B.Valixo‘jayevning yozishicha, eski o‘zbek va forstojik tillarida ijod qilganidan kelib chiqib, B.ni faqat turkman shoiri deb emas, balki o‘zbek va turkman shoiri deb qaragan ma’qul. Shoirning xalqona sodda uslub, o‘ynoqi ohang, samimiy ruhdagi turkona sodda g‘azallari anchagina. U Lutfiy va N.ga ergashib, salaflari uslubida g‘azallar yozishga intilgani ham ko‘zga tashlanadi. Misol tariqasida uning:

Ey bexabarim, xoh inon, xoh inonma,
Kuydi jigarim, xoh inon, xoh inonma, –

matla’si b-n boshlanadigan g‘azalining malik ulkalom Lutfiyning:

Sensan sevarim, xoh inon, xoh inonma,
Qondur jigarim, xoh inon, xoh inonma, –

matla’li g‘azalini eslatishini,

Yor dardi joni bemorimda bo‘lg‘ay koshki,
Jismi ozori tani zorimda bo‘lg‘ay koshki, –

misralari b-n boshlanadigan g‘azalining esa N. ning “koshki” radifli g‘azallari ta’sirida yaratilganini ko‘rsatib o‘tish kifoya. “Bu hol, birinchidan, B.ning XV asrdagi o‘zbek adabiyotining ulkan vakillari ijodidan yaxshigina xabardorligidan, ikkinchidan esa N. va Lutfiylarning B. yashab ijod etgan muhitda ham katta shuhratga ega ekanliklaridan dalolat beradi. Albatta, B. o‘z she’rlarini ustozlarining she’riyatidan o‘tkaza olmagan. Shunga qaramay, til va uslub, mavzu-mazmun jihatidan ularning asarlaridagi monand g‘azallarning bunyod etilish fakti e’tiborga loyiqdir” (B.Valixo‘jayev).

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Девони Байрамхон Хони Хонон. Карачи, 1971; Хони Хонон Муҳаммад Байрамхоннинг туркий девони. Мозори Шариф, 1373 (ҳ.); Асрлар нидоси. – Т., 1982. Байрамхан. Туркмен дивани. Ашгабат, 2000; Байрамхон. Девон. – Т., 2013; Байрамхон. Рубоийлар // Минг бир рубоий. – Т., 2009; Ҳасанхожа Нисорий. Музаккири аҳбоб. – Т., 1993; Ўзбек адабиёти тарихи. 3-жилд. – Т., 1978; Очилов Э. Саркарда ва шоир // Барҳаёт сиймолар. – Т., 2012.*

E.O.

BALINOS (eramizdan oldingi 79-23-yy.). – 1. N.ning “T.A.H.” asarida zikr etilgan hakim. N. uni Aristotelning shogirdi va Aleksandriya minorasi tilsimi ham B.ga tegishli ekanini aytadi. Lekin bizga bu qanday tilsim ekani ma’lum emas. N. uning mamlakatning obodligi shohning eldan ko‘p yo oz olishi yoxud unga ko‘p yo oz berishi b-n, boshqacha qilib aytganda, xalqqa solinadigan soliq va odamlarning daromadi b-n bog‘liq ekani haqidagi fikrini ham keltirgan. 2. “S.I.” dostonidagi personaj. N. dostonida bu adabiy personajning mavjudligi, albatta, “T.A.H.”da

tilga olingan hakim B. shaxsi b-n bog‘liq. Mazkur personaj dostonning bir qator boblaridagi voqealarda ishtirok etadi. Iskandarning taxtga o‘tirishi tasvirlangan XIX bob bunga misol bo‘ladi. Iskandar hukmdor bo‘lishga rozilik bergandan keyin Arastu o‘rnidan turadi va tojni olib Iskandarning boshiga kiydiradi. Shundan keyin Iskandarning bir qo‘lidan Arastu, bir qo‘lidan B. ushlab uni taxtga chiqaradilar:

Rizo zohir etgach shohi navjuvon,
Arastuyi farzona qo‘pti ravon.

Olib tojni aylabon arjumand,
Aning boshidin ayladi sarbaland.

Ravon tutti aytib sano bir qo‘lin,
Balinosi dono yano bir qo‘lin.

Ikki ganji hikmat oni yo‘ldabon,
Chiqardilar avrang uza qo‘ldabon.

N. bu ikki buyuk hakimning hukmdorni taxtga o‘tqazishini alohida tasvirlashi ostida chuqur ramziy ma’no bor – bu Iskandarning hukmronligi aqlga, ilm-hikmatga asoslanishini va umuman, davlat boshqaruvida hakim va olimlar, ilmning katta o‘rin tutishi lozimligi haqidagi fikrni asoslashga harakat qiladi. N. Arastu va B.ni ta’riflab, ularning birini Xizrga, ikkinchisini Ilyosga qiyos qiladi:

Arastu bila – yo‘q – Balinos edi,
Ki bu Xizr edi, ul bir Ilyos edi.

Dostonning LXXXI bobida Iskandarning o‘limidan so‘ng yetti nafar hakimlar unga ta’ziya bildirish u-n yuborilgani hikoya qilinadi. Ular orasida B. ham bor edi. U Suqrotdan so‘ng so‘z oladi va onaga tasalli berish u-n bir qator hikmatli, dono fikrlarni bayon etadi.

Ma’lumki, Iskandar huzurida yuzlab hakimlar bo‘lgan. Ulardan o‘ntasi alohida e’timod qozongan bo‘lib, ular kecha-kunduz Iskandar oldida bo‘lganlar. B. ham ana shu o‘nlikka kirgan. N. dostonda ularning nomini ham qayd etadi:

Falotun, Arastu, Balinos ham,
Yana Arashmidus, Shaminos ham.

Qilinmun-u Volis-u Farfurnus,
Ki Suqrot-u Hurmus kubi xokbo‘s.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

Z.R.

BALO (ar.) – 1. Ofat, ziyon, musibat, badbaxtlik. 2. Qiynab yoki siylab insonni sinash, imtihon. 3. Qiyinchilik, mashaqqat. 4. Favqulodda toqatni talab qiladigan ish. 5. Ajoyib, g‘aroyib. 6. Ne’mat; ba’zida ne’mat va zahmat. 7. Majoziy kinoya vositasida ma’shuqa, mahbuba.

Tasavvufda solikning ishqini yanada kuchaytiradigan ilohiy imtihonlarga B. deyiladi. So‘fiylarga ko‘ra, Allohning turli balolar orqali imtihon qilishi bandani unga yaqinlashtiradi. N. ijodida B. so‘z va termin sifatida ko‘p qo‘llaniladi. M-n, B. radifli g‘azalida yozadi:

Istamankim, ishq mendin o‘zgani qilg‘ay asir,
Hech kishiga bo‘lmasun, yo Rab,
manga bo‘lg‘an balo...

Vaslida rashk o‘lturur, hajrida – g‘am,
vahkim, manga
Vasl aro bo‘lg‘an balodur,
hajr aro bo‘lg‘an balo.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Баҳори Ажам. Жилд 1. – Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.); Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. – Душанбе, 1987; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик, 1-жилд. – Т., 1983; Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005; Сажжодий С.Ж.*

Фарҳанги истилоҳот ва табъироти ирфоний. – Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.).

M.A.

BALO SAHROSI – N. asarlarida balo b-n aloqador “joy” nomlari keladi. “Balo chamani”, “Balo vodiysi”, “Balo tog‘i”, “Balo afloki”, “Balo qo‘rg‘oni”, “Balo bozori”, “Balo dashti” kabilar b-n bir qatorda Balo sahrosi deb ham qo‘llaydi. “H.A.” dostonining to‘qqizinchi maqolatida “Ishq o‘ti”ni ta’riflab, shunday deydi: “Ishq o‘ti ta’rifidakim, uning shu’lasi balo sahrosining lolalaridur, cho‘g‘i baloga duchor bo‘lgan ko‘ngulning qon bo‘laklaridir…”. Aslida, balo ishq va dard b-n bog‘liq. Shu bois balo sahrosi ham oshiqning mashaqqatli yo‘lidagi bekatlardan birini anglatadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011.*

Z.R.

BAL’AMI BO’UR – bani Isroil ulamolaridan biri. Bo’ur – otasining ismi. Duosi Xudoyi taolo tomonidan qabul qilinadigan kishi edi. Unga ismi a’zam – Xudoning sirli va muqaddas ismi ma’lum edi. Muso (a.s.)ni duoyibad qilgani u-n u qirq yil biyobonda sargardon bo‘ladi.

Bu shaxs haqida N. “T.A.H.”da ma’lumot bergan. Unga ko‘ra, Yuvsha’ (a.s.) Balqo shahrini qamal qilganida podshoh Boliqning amri b-n B.B. uni ham duoyi bad qiladi. Payg‘ambar qo‘shini parokanda bo‘ladi. Shunda Yuvsha’ Haq taologa yuzlanib aytadiki: “U nohaq duo qildi. Ismi a’zamni unga unuttirgil!” Elchisining iltimosi b-n Haq taolo B.B. ko‘nglidan ismi a’zamni mahv etadi. Yuvsha’ qayta qo‘shin yig‘ib, shaharni zabt etadi. Islomni tark etgani u-n kofirlar qatorida B.B.ni ham qatl qiladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Муҳаммад Ғиёсиддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. – Душанбе, 1987.*

E.O.

“BALIG‘LAR HIKOYATI” – “S.I.” dostonining LXII bobi ana shu hikoyat bayonidan iborat. Chuqur falsafiy mohiyatga ega ushbu hikoyatning mazmuni quyidagicha: bir daryoda bir to‘da baliqlar yashar edilar. Garchi daryoda, suv ichida yashasalar-da, ular buni bilmaydilar, doimo suv haqida orzu qiladilar. Ularning bu holatini muallif shunday tasvirlaydi:

Alarg‘a mudom orzu edi suv,
Suv erdi alarg‘a mudom orzu.

Bo‘lub ish borig‘a suv istar fani,
Der erdilar, ulkim suv derlar ani.

Ne yanglig‘ ekun ta’m-u rangi aning,
Qayu navo sayr-u darangi aning.

Ana shu vaqtda ulardan biri qaysidir girdobda qari nahang yashashini aytadi va suvni undan so‘rash kerak, deydi. Baliqlar darhol o‘sha girdob tomonga ketadilar. Yetib kelishlari b-n girdob ularni tortib, har tomonga tarqatadi. Daryo chayqalib, ulkan nahang paydo bo‘ladi va baliqlarni birin-ketin yutib yuboradi. Nahang qornida ular o‘zlarining avval suvda yashaganliklarini fahmlaydilar.

Hikoya qissadan hissa qabilidagi ogohlantiruvchi mazmunga ega quyidagi baytlar b-n yakunlanadi:

Netarsen tilab har ajoyibqa yo‘l,
Ajoyib erur senda, ogoh bo‘l!

Burunroki sud etmagay har nadam,
O‘zungni bilib, yo‘lg‘a qo‘ygil qadam.

N. dostonlaridagi boshqa ko‘plab hikoyatlar singari “Balig‘lar hikoyati” ham o‘zining falsafiy-didaktik mazmuni b-n muallifning g‘oyaviy-badiiy niyatlarini amalga oshirishga xizmat qiladi va “S.I.” dostonining mazkur LXII bobida o‘ziga xos o‘rin tutadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Ўзбек*

адабиёти тарихи. 5 томлик, 2-том, – Т., 1977; История узбекской литературы в двух томах. Том 1. – Т., 1982.

Q.E.

BALX – Afg‘onistonning shimoliy qismida joylashgan qadimiy shahar va viloyat. Mil.dan oldingi davrlarda paydo bo‘lgan. Ahamoniylar, Iskandar Zulqarnayn imperiyasi davrlarida shu davlatlar tarkibiga kirgan. Keyinchalik bu yerda Yunon – Baqtriya, Kushon davlatlari paydo bo‘lgan. VIII asrgacha B. Sosoniylar, VIII asr boshidan arablar hukmronligi ostida bo‘lgan. So‘ngra ma’lum bir davrda G‘aznaviylarga, XII–XIV asrlarda chingiziylarga bo‘ysungan. 1370-y.dan boshlab sohibqiron Amir Temur va temuriylar tasarrufida bo‘lgan.

B. tarixining bir necha sahifalari N.ning hayoti va faoliyati b-n bog‘liq. Sulton Husayn Boyqaro Xurosonda o‘z hokimiyatini o‘rnatgandan keyin, B.ga yurish qilgan va bu yurishda N. ham ishtirok etgan. Keyinchalik bu viloyatda N.ning ukasi Darvesh Alibek hokimlik qilgan. Darvesh Alibek isyon ko‘targan va Husayn Boyqaro unga qarshi B.ga qo‘shin tortganda N. u b-n birga bo‘lgan. Isyon bartaraf qilinganda Husayn Boyqaro Darvesh Alibekni afv etgan edi. Lekin Hisor viloyatiga yurishga tayyorgarlik chog‘ida u Darvesh Alibekni hibsga olishga buyurgan. N.ni B.ga qo‘yib o‘zi Hisor viloyatiga lashkar tortgan (1494). Oxirgi marta N. B.ga 1498-y.da kelgan. U paytda B. hokimi Badiuzzamon mirzo bo‘lib, u otasiga qarshi isyon ko‘targan edi. Badiuzzamon N.ni yaxshi kutib olib, katta izzat-hurmat ko‘rsatgan. N.ga bo‘lgan hurmati tufayli hamda uning nasihati va samimiy so‘zlaridan ta’sirlangan shahzoda yarashishga rozi bo‘lgan esa-da, Xadichabegim va Nizomulmulklarning teskari harakatlari va makrlari tufayli sulh tuzilmagan va N. Hirotga qaytgan.

N. B.dagi adabiy hayotni, u yerdagi shoirlarni yaxshi bilgan. “M.N.” tazkirasida u Mavlono Sohib Balxiy, Said Kamol Kachkul, Mavlono Muhammad Amin, Mavlono Atoiy, Mavlono Kamoliy, Hajriy, Mavlono Majnuniy kabi balxlik ijodkorlar haqida ma’lumot bergan.

N. “T.M.A.” asarida B.ni Hushangshoh tomonidan barpo etilgan, deb yozadi. “S.I.” dostonida ham B.ning ta’rif va tavsifiga to‘xtalib o‘tgan:

Ki, anhori obod etib mulki Balx
Ki, andindurur xasmning ayshi talx.

Hamul Balxkim, qildi Hushangshoh,
Jahondin guzin aylabon taxtgoh.

Maqomi – Birohimi Adham kelib
Ki, gardi rahi charxi a’zam kelib.

Ad.: *ЎзМЭ. 1-жилд. – Т., 2004; Низомиддин Шомий. Зафарнома. – Т., 1996; Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

Q.E.

BALX QAMALI(1472) – N. ishtirok etgan harbiy yurishlardan biri. 1472-y.da Balxda Ahmad Mushtoq isyon ko‘targan. Sulton Husayn Boyqaro Balxga lashkar tortib, uni qamal qilishga majbur bo‘lgan. Uning qo‘shini Balxni qamal qilgan. N. ham u b-n birga edi. Sulton Husayn Balx atrofini o‘rab olgan qo‘shiniga shaharning mudofaa devorlari va darvozalarini taqsimlab bergan. Har bir bek, qo‘shin boshlig‘i o‘ziga tegishli joyga o‘rnashib, qamalni davom ettirgan. Sultonning o‘zi shoh Husayn burjiga joylashgan. N.ning ishtiroki haqida Xondamir shunday yozadi: “Sulton hazratlarining yaqin do‘sti amir Alisher Shirxor darvozasini askargoh qildi”. Ma’lumki, har bir amir harbiy yurishlarda va janglarda o‘z harbiy qismi b-n ishtirok etgan va ularga qo‘mondonlik qilgan. N. ulug‘ amir rutbasiga ega edi, binobarin unga qarashli navkarlar ham boshqa amirlarnikidan ko‘p bo‘lgan. Qamal bir necha oyga cho‘zilgan va qattiq janglar bo‘lgan. Lashkarda g‘alla va oziq-ovqat qolmagani u-n

Sulton Husayn N.ni Hirotga yuborgan. N. farmonga binoan, Xuroson viloyatidan ikki-uch ming xarvor g‘alla to‘plab, Balxga yuborgan. Oziq-ovqat yetib kelgandan keyin Husayn Boyqaro qo‘shini Balx qal’asiga hujum qilib, uni egallagan.

Ad.: *Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985; Хондамир. Ҳабиб ус-сияр. – Т., 2013.*

Q.E.

BANG (f-t.) – kayf beruvchi va sarxush qiluvchi o‘simlik, ko‘knori, nasha. Mumtoz adabiyotda bang riyokor, ikkiyuzlamachi, munofiq kishilarga nisbatan ishlatilgan badiiy timsoldir. N. she’riyatida ham mana shunday mazmunda qo‘llanilgan B. badiiy adabiyot namunalaridagi qator g‘oya va obrazlarning mushtarakligiga dalolat etadi:

Shayx johil bo‘lmoq o‘z asrori birla munbasit,
G‘aflat ahli bang ila qilg‘an kebidur inbisot.

Ad.: *Ўзбек муттоз адабиёти намуналари. 2 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2006; Асадов М. Соқийнома: тарих ва поэтика. – Т., 2020.*

M.A.

BANI ISROIL – Ya’qub (a.s.)ning avlodi. Isroil – Ya’qub (a.s.)ning laqabi. Yahudiy tilida Isro – tanlangan, Il – Xudo, ya’ni Xudo tomonidan tanlangan kishi degani. Ba’zilar Isroil – Xudoning bandasi ma’nosini bildiradi ham deydilar. N. “T.A.H.” asarida B.I.ga oid juda ko‘p ma’lumotlarni bayon etadi. N. ham B.I.ning Ya’qub (a.s.) avlodi ekanini ta’kidlaydi. “Isroil” so‘zining lug‘aviy ma’nosiga N. to‘xtalmaydi va Isrois (a.s.)ni Isroil deb atalganini qayd etish bilan cheklanadi: “Ya’qub (a.s.) – payg‘ambar mursaldur... Va Isroil ani derlar”.

Manbalarda B.I. ning asbat (asbot)dan tarqalgan qavm ekani aytilgan. N. ham buni tasdiqlaydi (bu haqda “Asbat” (Asbot) maqolasiga qarang).

“T.A.H.”da hikoya qilingan payg‘ambarlar haqidagi qissalarning katta qismi B.I. b-n bog‘liq. Zero, payg‘ambarlar, asosan, shu qavmdan chiqqan. Muso (a.s.), Horun (a.s.), Yuvsha’ (a.s.), Qoluj (a.s.), Xizr (a.s.), Ilyos (a.s.), Yunus (a.s.), Ashmunl (a.s.), Dovud (a.s.), Sulaymon (a.s.) va boshqalar shular jumlasidan bo‘lib, ularning kishilarni Haq dinga da’vat etganlari, bu yo‘lda olib borgan kurashlari N. asarida o‘z aksini topgan.

N.ning B.I. va qibtiylar o‘rtasidagi munosabatlarga oid ma’lumotlari alohida diqqatga sazavordir. Ulardan ma’lum bo‘lishicha, B.I. uzoq vaqt davomida qibtiylar hukmronligi ostida yashagan. Ular qibtiylarning xizmatlarini qilib kun ko‘rgan va huquqsiz toifa bo‘lgan. Qibtiylar va Fir’avn tomonidan B.I. ga qilingan zulm va B.I.ning arosatda yashagani N. asarida batafsil ko‘rsatib berilgan. N.ning fikricha, B.I. ni Muso (a.s.) qibtiylar zulmidan xalos etgan. “T.A.H.”da bu haqda batafsil so‘z yuritiladi.

B.I. b-n bog‘liq muhim voqealardan biri Tavrotning nozil bo‘lishidir. N. yozishicha, B.I. Muso (a.s.)dan Tangridan ular u-n alohida bir shariat so‘rab berishini iltimos qilgan. Muso (a.s.) Yaratganga munojot qiladi va unga javoban Turi Sino tog‘iga borib, o‘ttiz kun ro‘za tutish lozimligi haqida xitob qiladi. Muso (a.s.) bu amrni bajargandan so‘ng yana o‘n kun davom ettirish, shundan so‘ng o‘n lavhdan iborat shariat buyuriladi. B.I. bu vaqt ichida Somiriy so‘zi b-n go‘solaparastlikni qabul qiladilar va buning u-n Tangrining g‘azabiga uchrab, qirg‘in qilinadi. Muso (a.s.) duosi b-n qirg‘in to‘xtaydi. Muso (a.s.) yana munojot qiladi va Tavrot nozil bo‘ladi.

B.I. b-n bog‘liq qissalarning ko‘pchiligi Sharqda juda mashhur bo‘lib ketgan Sulaymon (a.s.) qissalari shular jumlasidan bo‘lib, ular badiiy adabiyotda, shu jumladan, N. asarlarida ham o‘z aksini topgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи мулки ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8 жилд. – Т., 2011; Рабғузий. Қисаси Рабғузий. – Т., 1991.*

E.O., D.A.

BARAHMAN (h.) – kelib chiqishi bo‘yicha qadimiy kohinlar; otashparastlar ibodatxonasi

ruhoniysi; butparast va zunnor taqib yuradigan kishi; butparastlar va otashparastlar piri va murshidi. Keyinchalik hindlarning oliy tabaqasiga aylangan. Hind hakim va donishmandlari ham B. deb yuritilgan. N. ijodida ham B. bir qancha ma'nolarida keladi. M-n:

May ber, ey barahman, ar mug'bacha
ishqida ko'ngul
Bo'lsa badmast firoqi bila ta'zir etayin.

Ad.: *Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2011; Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. – Душанбе, 1987; Фарҳанги забони тожики. Жилд 1. – М., 1969; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Т., 1983; Бурҳони қотеъ. Жилд 1. – Душанбе, 1993; Асадов М. Соқийнома: тарих ва поэтика. – Т., 2020.*

E.O., M.A.

BARBAT – yoy shaklida yasalgan qadimgi chertma torli soz, cholg'u asbobi. B.ning kosasi katta, dastasi esa qisqa bo'ladi. Lug'aviy ma'nosi: o'rdakning siynasi. Mazkur musiqa asbobi o'rdakning siynasiga o'xshagani u-n shunday atalgan. Ba'zilar bu sozni udga o'xshatadilar. N. "S.S." dostonida mana bu shaklda keltiradi:

Bovujudi jamodi fitnafigon,
Bor emish xushnavo-yu barbatzan.

Barbatzan – B. chaluvchi ayol ma'nosida kelgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. – Душанбе, 1987; ЎзМЭ. 1-жилд. – Т., 2000; Бурҳони қотеъ. Жилд 1. – Душанбе, 1993.*

E.O.

BARDA' (ar. – egar) – Ozarbayjon Respublikasidagi shahar. Mil. IV asrdayoq mavjud bo'lib, V asrda birmuncha vaqt Perozapat deb ham atalgan (sosoniylardan Feruz nomi b-n bog'liq bo'lsa kerak). VIII asr boshida arablar tomonidan zabt etilgan Sharq karvon yo'llari kesishgan joyda joylashgani u-n yirik savdo-hunarmandchilik shahriga aylangan. Urushlar, xususan, mo'g'ullar istilosi natijasida tanazzulga yuz tutgan. Arranlar hokimiyatining poytaxti bo'lib, X asrdan keyin poytaxt Ganjaga ko'chgan. N. "F.Sh." dostonining xotima bobidagi faxriya yo'sinida bitgan baytlaridagi Nizomiy madhida uni tilga oladi:

Nizomiy olsa Barda' birla Ganja,
Qadam Rum ahlig'a ham qilsa ranja.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; ЎзМЭ. 1-жилд. – Т., 2000.*

E.O.

BARZAX (ar.) – ikki muxolif tomonning bir-biriga munosabati bo'lish-bo'lmasligidan qat'i nazar, bir-biriga zid ikki narsaning oralig'i. M-n, a'rof jannat b-n do'zax, zamon o'lim b-n qiyomat, maymun inson b-n hayvon o'rtasidagi oraliq; to'siq. Majoziy ma'noda, asosan, a'rof ma'nosida qo'llanadi. N. asarlarida ham B.ning shu ma'nolari ko'zga tashlanadi. M-n:

Anushervon garchi kofir edi,
Vale adl zotida zohir edi.

O'run garchi kofirg'a do'zaxdurur,
Aning adldin o'rni barzaxdurur.

Olami barzax – o'lim b-n qiyomat orasidagi arvohlar olami.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. – Душанбе, 1987; Жилд 2. – Душанбе, 1988; Фарҳанги забони тожики. Жилд 1. – М., 1959; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик, 1-жилд. – Т., 1983.*

E.O.

BARLOS / Barulas / Ballos – o‘zbek xalqi tarkibiga kirgan qabilalardan biri. XIII asrning 2-yarmida Ila (Ili) daryosi bo‘ylaridan O‘rta Osiyo hududiga ko‘chib kelgan va XIV–XV asrlarda Movarounnahrning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida muhim rol o‘ynagan. Amir Temur B. qabilasidan bo‘lib, sarkarda va viloyat amirlarini, asosan, shulardan tayinlagan. B.larning bir guruhi *temuriylar* va *boburiylar* davrida Afg‘oniston va Hindiston hududiga ko‘chib o‘tgan. B.lar turkiy tilning qorluq-chigil lahjasida so‘zlashgan.

Nizomiddin Shomiy “Zafarnoma” asarining “Amir Sohibqironning Qarobog‘da qishloq qilgani bayonida” nomli bobida Sohibqironning suvi qurib qolgan bir daryodan yana suv oqishini ta’minlab juda katta obodonchilikni yo‘lga qo‘ygani va ushbu daryoni o‘z qabilasi nomi b-n atagani to‘g‘risida ma’lumot beradi: “Biroq, albatta, bizdan ham biror yodgorlik qolishi lozimki, zamonlar o‘tishi b-n bizning nomimiz saqlanib qolsin va uning ajru savobi beandoza bo‘lsin”. Shundan so‘ng u nahrni qazishga buyurdi... Uni bir oy muddatda tamomlab, suv yurgizdilar. Amir Sohibqiron u anhorga ***Nahri Barlos*** deb nom qo‘ydi, toki u ulug‘ xonadonning nomi shunday xayrli ish vositasi b-n zamona sahifasi yuzida boqiy qolg‘ay!” Barloslarning bir guruhi Hindiston hududiga ko‘chib o‘tgan. XIX asrda birgina Dehli shahri atrofida 15 ming barloslar yashagani tarixiy manbalarda qayd etilgan. Ammo barlos qabilasining asosiy qismi O‘zbekistonning janubiy hududlarida qolib, dehqonchilik va chorvachilik b-n mashg‘ul bo‘lgan.

N. asarlarida, xususan, devonida B. nomiga bir necha o‘rinlarda duch kelinadi. G‘azallarda, ko‘pincha, B. termini Tarxon urug‘i b-n birga qo‘llanganini ko‘rish mumkin:

Ey Navoiy, naylay el tarxon bila barlosini
Kim, berur ko‘nglumga holo molish
ul sho‘xi malash.

Solmoq o‘t barlos-u tarxon orazi ne sudkim,
Bizni kuygan chehra birla bir yasoqi kuydurur.

Ey Navoiy, piri soqiyvashqa andoq men xarob
Kim, unutmishmen jahon tarxon ila barlosidin.

Shuningdek, N. aksar o‘rinlarda muayyan urug‘ nomi b-n bog‘liq biror kechinmani badiiy so‘zda manzaralashtirar ekan, ma’shuqa tilga olinayotgan urug‘ nomiga Lo‘li, Lo‘livash qarshi qo‘yiladi. Bu esa N. asarlarida tilga olingan urug‘ vakillari jang-u jadalda ham, aql-u husnda ham tengsiz bo‘lib, doim kishilarni hayratga solib kelgani ma’lum bo‘ladi.

Navoiy sevdi bir lo‘liyni kezdeg rub’i maskunda,
Agar arlot, agar barlos, agar tarxon, agar sulduz.

N. “V.” asarida “Barlosiynihod ozodalar” tarzida ibora qo‘llar ekan, Husayn Boyqaroga tobe’ bo‘lgan bekzoda va amaldorlar safida B. amirlari ham bo‘lganini maxsus qayd etib o‘tgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Вақфия. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 1-жилд. – Т., 2000; Навоий асарлари луғати. Тузувчилар: Порсо Шамсиев, С.Иброҳимова. – Т., 1973; Низомиддин Шомий. Зафарнома. – Т., 1996; ЎзМЭ. 1-жилд. – Т., 2002; Абулғози Баҳодирхон. Шажарайи турк. – Т., 1992.*

B.R.

BARLOS BEKLARI – Barlos urug‘iga mansub beklar. Amir Temur ushbu urug‘ga mansub bo‘lgani va temuriy hukmdorlarga sharafli xizmatlar qilgani u-n barlos zodagonlari yuqori mavqe va nufuzga ega bo‘lgan.

N. davrida ham barlos beklari Xurosonning siyosiy-ijtimoiy hayotida muhim rol o‘ynagan. Husayn Boyqaro hukmronligining dastlabki yillari amir Muzaffar barlos uning huzurida amir ul-umaro (ulug‘ bek) edi. Sulton Husayn Boyqaro 1472-y.da N.ga beklik (amirlik) rutbasini berganda barlos amirlaridan amir Muzaffar barlosdan boshqa hech kim N.dan oldin muhr bosmasin, degan farmon chiqargan.

Amir Muzaffar o‘limidan so‘ng, barlos beklarining eng ulug‘i Muhammad Burunduq barlos hisoblangan. Bu davrda saroyda Jahongir barlos, Islim barlos, Mirzo Ali Ahmad Forsiy barlos, Ahmad Tabakkul barlos kabilar faoliyat ko‘rsatgan. Manbalarda barloslar, eng avvalo, Burunduq barlos b-n N. o‘rtasida biron-bir yaqinlik yoki hamkorlik munosabatlari bo‘lgani haqida ma’lumotlar uchramaydi. XV asrning 80-yillarining oxiri 90-yillar boshida yuz bergan siyosiy qarama-qarshiliklar vaqtida ular Majididdinni qo‘llab-quvvatlagan. Undan keyingi yillarda Husayn Boyqaro saltanatida yuzaga kelgan siyosiy vaziyatni hisobga oladigan bo‘lsak, barlos beklari va N. o‘rtasidagi munosabatlar silliq va oson kechmagan.

Ma’lumki, Muhammad Burunduqbek Muzaffar mirzoning bek atkasi edi, shu bois u va boshqa B.B. Muzaffar Mirzoning onasi Xadichabegim, uning ittifoqchisi Nizomulmuluklar b-n yaqin aloqada edilar. Ammo B.B. Xadichabegim va Nizomulmulukning barcha kirdikorlariga ham bosh qo‘shavermaganlar, jumladan, Mo‘min mirzoning qatlida ham aloqalari bo‘lmagan. Tarixiy manbalarda Muhammad Burunduq barlos Sultonning farmoniga ko‘ra, Muzaffar mirzo b-n Astrobodga yurish qilib, Mo‘min mirzoni asir qilib olib kelgani va Ixtiyoriddin qal’asiga qamab qo‘ygani aytiladi. Lekin shahzoda o‘limining asosiy sababchilari Xadichabegim va Nizomulmuluk ekani alohida ta’kidlanadi. Shuningdek, N.ning Balxdagi tinchlik muzokaralari natijalarining barbod qilinishi ham, asosan, malika va vazirning fitnalari tufayli bo‘lib, bu voqeada barloslarning qo‘li bo‘lmagan. Shular sababli bo‘lsa kerak N. va B.B. munosabatlari murakkab bo‘lsa-da, ochiq dushmanlikka borib yetmagan. Muhammad Burunduq barlos N.ning bir qit’asida “Barlosbek” tarzida tilga olingan (Bu haqda qarang: “Muhammad Burunduqbek”).

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Вақфия. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Эргашев Қ. Некоторые аспекты государственной деятельности Алишера Навои. – Т., 2009; Хондамир. Ҳабиб ус-сияр. – Т., 2011; Бобур. Бобурнома. – Т., 2002.*

Q.E.

BARMAK – mumtoz adabiyotda, shu jumladan, N. asarlarida ham saxiylik timsoli sifatida qo‘llaniladigan obraz. Mazkur obrazning paydo bo‘lishi Abbosiy xalifalar davrida (750–1258) faoliyat ko‘rsatgan mashhur vazirlar sulolasi – barmakiylar b-n bog‘liq. Bu avloddan turli davrlarda 4 ta vazir yetishib chiqqan va ular xalifalikning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotida katta rol o‘ynagan. Barmakiylar muhim davlat mansablarida turgan paytlarida ulkan ishlarni amalga oshirganlar, ayni paytda o‘zlarining boyliklari va saxiyliklari b-n ham dovruq qozonganlar. Barmakiylarning eng mashhuri Ja’far bo‘lib, u xalifa Xorun ar-Rashidning vaziri bo‘lgan edi. Uning nomi, hatto “Ming bir kecha” ertaklarida ham tilga olinadi.

N. “H.” qasidasida B. obrazini saxovat ramzi sifatida mashhur Hotam obrazi b-n yonma-yon qo‘llaydi:

Chun saxovat ilgi ochsang dahr
chekmas zarraye,
Zarfishonlig‘da quyosh sarpanjasining minnatin.

Chun ziyofat xoni yoysang, janbida topmas sipehr.
Jashni lubat Hotam-u Barmak bisoti ne’matin.

“H.A.” dostonining karam vasfiga bag‘ishlangan beshinchi maqolatida ham N. ushbu timsoldan mahorat b-n foydalangan:

Kaflaring oyini chu bermak bo‘lub.
Qo‘l munga Hotam, anga Barmak bo‘lub.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик, 3-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; ЎзМЭ, 1-жилд. – Т., 2000.*

E.O.

BAROATI ISTIHLOL – “Baroat” ilmda yoki boshqa narsalarda o‘z tengqurlaridan ustun bo‘lmoq, “istihlol” esa yangi oyni ko‘rmoqdir. Istilohda she’r, kitob yoxud muayyan bobni asosiy maqsadga, keyingi mazmunga nozik ishora qilish b-n boshlash san’atini anglatadi. M-n, N. “S.”sining ko‘p bandlari baroati istihlol sifatida boshlanadi. “F.K.”dagi Suhayliyga bag‘ishlangan band:

Soqiyo, jomga quy maydin sel,
Mayi xurshid-u aning jomi **suhayl.**

Jomiy haqidagi band:

Soqiyo, **jom** *ketur daryovash,*
Ki zamone bo‘layin daryokash.

Pahlavon Muhammadga bag‘ishlangan band:

Soqiyo, **pahlaviy** *oyin may tut,*
Pahlaviy *lahn ila ko‘nglungni ovut!*

Pahlavonona ketur sog‘ari jarf,
Quyubon maydin anga bahri shingarf...

N.ning B.I.dan xoli asari yo‘q deyish mumkin. Chunki u barcha asarlarining muqaddimasida uning nima maqsadda yozilgani haqida ma’lumot berish barobarida, unda nima mavzuda so‘z borishini ham, albatta, aytib o‘tadi. “X.” dostonlari boblari sarlavhalari esa ayni jihatdan B.I. san’atining badiiy barkamol namunalaridir. M-n: “Majnunning atosi ani ishq bodiyasidin kelturub, Ka’ba tavofig‘a olib borg‘oni va ul munojot bahonasi bila ko‘nglidagi chirni yozg‘oni va duo qilmoq taronasi b-n xotiridag‘i maxfiy maqosidin tilidin chiqarg‘oni va Arafot ahlidin arasot qo‘porg‘ani” yoki “Xoqonning o‘z gavharin xazoyin g‘aroyibi, balki g‘aroyib xazoyinig‘a kiyurmog‘i va aning ko‘ziga sangpora ushoq toshcha va qizil oltun qaro tufrog‘cha ko‘runmay, ko‘zi jaz’i billuriy durjg‘a tushub, suvda mehri xovariydek billurda oyinai Iskandariyg‘a tushgoni va ul ko‘zgu tilismidin g‘arib suratlar anga yuz ko‘rguzub, ko‘ngli ko‘zgu aksidek iztirobga tushgani”. Ko‘rinib turganidek, sarlavhaning o‘zidayoq boblarda nima haqda so‘z borishi aniq-tiniq aytib qo‘yilgan. N. “N.M.” tazkirasining muqaddimasida ustozi Abdurahmon Jomiyning shayx-u avliyolar haqidagi “Nafohat ul-uns” tazkirasini turkiy tilli o‘quvchilar ham bahramand bo‘lishi u-n yigirma yil davomida tarjima qilish niyatida yurgani va nihoyat bu ulkan va xayrli ish muyassar bo‘lganini aytar ekan, tarjima jarayonida o‘zi amalga oshirgan o‘zgarishlar, qisqartirishlar va qo‘shimchalar haqida ma’lumot berish b-n birga, asarining mazmun-mundarijasini ham bayon qilib ketadi.

N. Samarqanddan Sayyid Hasan Ardasherga yozgan she’riy maktubida an’anaviy hamd-u na’t va ustozi sha’niga madh-u sanodan keyin o‘zining nega vatanni tark etishi sababini tushuntirib beradi va o‘quvchi bundan masnaviyda nima xususida so‘z borishini taxmin qiladi:

Chu holimdin ahbob ogoh emas,
Degaylar hadiseki, dilxoh emas.

Ayon bo‘lg‘ay ollingda hangomaye,
Bitilmak manga farz edi nomaye.

Sanga holatimni ayon aylamak,
Bu azmim vujuhin bayon aylamak.

Manga necha nav’ o‘ldi bechoralig‘ –
Ki, ollimg‘a tushti bu ovoralig‘.

Xullas, Atoulloh Husayniy ta’biri b-n aytganda, B.I.ga rioya qilgan muallif boshqalardan “kalom ibtidosin maqsadg‘a munosib qilmoqliqta diqqati nazar qilg‘anlig‘i bila ustun bo‘lur”.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға. Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 2002., № 6; Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъ-ус санойиъ (А. Рустамов таржимаси). – Т., 1989; Зеҳний Т. Санъати сухан. – Душанбе,*

1967; Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. – Душанбе, 1987; Фарҳанги забони тожики. Жилд 1. – М., 1969; Асадов М. Соқийнома: тарих ва поэтика. – Т., 2020.

E.O., M.A.

BAROT – o‘rta asr musulmon davlatlarining pul-moliya tizimida muhim o‘rin tutgan hujjat. Davlat xazinasining kirim-chiqimlari B. asosida amalga oshirilgan. Xazinadan beriladigan mablag‘lar u-n B. yozilgan va shundan so‘ng unda ko‘rsatilgan miqdordagi pulni olish mumkin bo‘lgan. Fuqarolardan davlat hisobiga undiriladigan mablag‘lar ham B. vositasida olingan. O‘sha vaqtlarda qandaydir sabablar b-n yoki amaldorlarning mas’uliyatsizligi sababli B.larning o‘z vaqtida yozilmasligi oqibatida odamlarning maosh hamda boshqa zarur mablag‘larni o‘z vaqtida olmasligi holatlari yuz berib turgan.

N. “M.N.”da Gavharshodbegim madrasasining talabalari shu masala bo‘yicha uning oldiga shikoyat b-n kelganliklari haqida yozadi: “Gavharshodbegim” madrasasining talabasi, sohib jam’ vazifalarin kechroq B. bitadurg'on uchun shikoyatga bu faqir qoshig‘a keldilar. Ittifoq bila so‘zni ul ayturg‘a muqarrar qilg‘on ermishlar. Faqir jamoati kasir ko‘rdum ersa so‘zlarin so‘rdum. Aning taqririg‘a havola qildilar. Andin so‘ruldi, ersa bu iborat bila takallum surdikim “barot namenavisad”. Va rangining hurmati bor uchun mutoyiblari ani “surx qalb” derlar. Bu matla’ aningdurkim:

Joni man toza shud az la’li tu xunxoriyi dil,
Ba’daz in movu sari ko‘yi tuvu zoriyi dil.

Xazinadan beriladigan pullar u-n yoziladigan B.lar masalasida ko‘pincha beparvolikka yo‘l qo‘yilsa-da, odamlardan xazinaga to‘lash u-n yozilgan B.lar xususida amaldorlar qattiq turganlar va har qanday yo‘l b-n ham undirib olganlar. Shu sababli aholi bundan qo‘rqqan hamda o‘z vaqtida to‘lab qutulishga intilgan. Xondamir “Makorim ul-axloq”da shu b-n bog‘liq bo‘lgan, ayni paytda N.ning ushbu hujjat kuchidan ezgulik yo‘lida ustalik b-n foydalanganini ko‘rsatuvchi bir voqeani hikoya qiladi: N. Hirotdagi Jome’ masjidini ta’mirlash paytida binoning yozuvlarini bitishni Mirak naqqoshga topshirgan edi. Bunda u o‘z odatiga ko‘ra, uni rag‘batlantirishni unutmagan, Mirak naqqoshga ish haqi oldindan to‘lab qo‘yilgan edi. Shunday bo‘lishiga qaramay, naqqosh beparvolik va dangasalikka berilib, o‘ziga topshirilgan ishni bajarishni orqaga suradi. Yozuvlar bitib bo‘lingandan keyin binoni bezashlari lozim bo‘lgan naqqoshlar ham unga qarab ishlolmay turadilar, nasihat ham, qattiq gaplar ham Mirakka ta’sir qilmaydi. Shunda N. devoni oliydan Mirak naqqosh nomiga boshqa yozish haqida topshiriq beradi. B. chiqqandan so‘ng, naqqoshga uni ko‘rsatib, devoni oliydan olingan 5 ming dinor mablag‘ni qaytarishni talab qiladilar. Vahimaga tushgan Mirak N.dan ushbu B.ni bekor qilish chorasini ko‘rishni so‘rab, yalinadi. N. unga “Barotni qaytarish oson ish emas, lekin siz uchun urinib ko‘ramiz. Lekin siz ham masjid binosining yozuvlarini tugatib berishingiz kerak”, – deydi. Mirak naqqosh darhol rozi bo‘ladi. N. huzurida undan bu borada tilxat yozdirib oladilar. Shundan so‘ng Mirak qattiq ishga kirishgan va Xondamirning yozishicha, to ish tamom bo‘lgunicha haligi B. vahimasidan tashqariga ham chiqmagan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985.*

Q.E.

BARSISO – nihoyatda xudojo‘yligi, o‘ta taqvodorligi b-n dong taratgan, lekin oqibatda shayton vasvasasiga uchib, kofir va badnom bo‘lgan zohid. “T.A.H.” asarida N. uni B. obid tarzida zikr etadi. Ba’zilar uni valiy ham deydilar. M-n, Maxtumquli yozadi:

Qirq ming muridi ham bor edi komil,
O‘zi bir eshondir – piri mukammil.

Oxirida bir ish qildi ul johil,
Xudo uning yuzin qaro ayladi.

Bo‘lib erdi o‘zi vosili dargoh,
Nomi erdi uning Shayxi Barsiso...

B. haqidagi rivoyat diniy-didaktik asarlarda turli ko‘rinishlarda uchraydi. Keng tarqalgan shaklida keltirilishicha, hajga ketayotgan aka-ukalar taqvodorligi b-n tanilgan B.ga yolg‘iz singillarini omonat qoldirib ketadilar. Shayton yo‘ldan urgan B. esa qiz b-n zino qilib, keyin aybini yashirish u-n uni o‘ldiradi. Akalarini esa xastalikdan vafot etdi deb aldaydi. Lekin shaytondan sirni bilgach, uni tutib o‘ldirmoqchi bo‘ladilar. Shunda shayton Allohdan yuz o‘girishi evaziga uni xalos etishni taklif qiladi. U Xudodan yuz o‘girishi b-n shayton ham undan yuz o‘giradi. Qur’oni Karimning “Hashr” surasi 16-17-oyatlarida shunga o‘xshash voqealarga ishora qilinib, shunday deyiladi: “Eslang, u insonga: “Kofir bo‘l!” – degan edi. Endi qachonki (inson) kofir bo‘lgach, (shayton unga): “Albatta, men sendan bezorman. Zero, men barcha olamlar Parvardigori bo‘lmish Allohdan qo‘rqurman”, – dedi. Bas, ikkisining (shayton va uning so‘ziga kirib kofir bo‘lgan insonning) oqibati do‘zaxga kirib, unda mangu qolishlari bo‘ldi. Zolim kimsalarning jazosi shudir!” Ma’lum bo‘ladiki, shayton insonni yo‘ldan ura olsa ham, uni Allohning qahridan muhofaza qila olmaydi.

“T.A.H.”da keltirilishicha, Iso (a.s.)dan keyin bani Isroil qavmidan chiqqan B. obid 70 yil ibodat qilib, xalqning mehr-u ixlosini qozonadi. Shayton ahli saloh suratida uning ibodatxonasiga kelib, bir yil davomida toat-ibodatga mashg‘ul bo‘ladi. Ikki o‘rtada yaqinlik paydo bo‘lgach, shayton unga bemorlarga shifo bo‘ladigan bir ism o‘rgatadi. Shu orqali u ko‘p kasallarni davolab, hakimlikda dong taratadi. Ovozasi shoh saroyiga ham yetib, dardmand malikani davolash u-n xonaqohida qoldirib ketadilar. Beqiyos husn-u jamol sohibasini ko‘rib, shayton vasvasasiga uchragan B. qiz b-n zino qilib, so‘ng gunohini bekitish maqsadida uni xilvat bir yerga dafn etadi. Shoh mulozimlarini esa “Qayoqqa chiqib ketganini bilmayman?” – deb aldaydi. Lekin nayrangi fosh bo‘lib, shoh uni qiynab o‘ldirishga hukm etadi. Shunda shayton: “Menga sajda qilsang, seni bu balodan qutqaraman!” – deb yana fitna qiladi. B. bunga rozi bo‘ladi. Lekin qatldan qutula olmaydi.

N. bunday rivoyatlar nafsiga qul bo‘lgan inson oxir-oqibat sharmanda-yu sharmisor bo‘lishidan bizni ogohlantiradi.

Ad.: *Қуръони Карим (А.Мансур тарж.). – Т., 1992; Ислом (энциклопедия). – Т., 2004 ; Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Муҳаммад Ғиёсиддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. – Душанбе, 1987; Бурҳони қотеъ. Жилд 1. – Душанбе, 1993; Махтумқули. Булбул ноласи (Э.Очилов тарж.). – Т., 2014.*

E.O.

BARTOLD Vasiliy Vladimirovich (1869, Sankt-Peterburg – 1930, Leningrad) – ko‘zga ko‘ringan tarixchi olim, shuningdek, rus sharqshunosligi maktabining asoschilaridan biri. U 1869-y. ning 3-noyabrida Peterburg shahrida tug‘ilgan. B.V.V. ning Sharqqa qiziqishi, maktab davrlaridan boshlangan va 1887-y.da u Peterburg davlat universitetining sharqshunoslik fakulteti, arab-fors-turk-tatar tillar yo‘nalishiga o‘qishga kirdi. N.I.Veselovskiy, V.A.Jukovskiy, V.R.Rozen singari sharqshunoslarning ma’ruzalari, shuningdek, universitetning boy kutubxonasi B.V.V.ning chuqur tahlil qila oladigan kuchli olim bo‘lishiga yordam berdi. Akad. B.V.V. olib borgan tadqiqotlarning ahamiyatli tomoni shundaki, u nafaqat Sharq tarixini, balki madaniyati, dini va adabiyotini o‘rgandi.

Rus akademigi 1930-y.da olamdan o‘tgan, olimning butun hayot yo‘liga oid ko‘zga ko‘ringan tadqiqotni B.V.Lunin o‘zining “V.V.Bartoldning hayoti va faoliyati” (Tashkent, 1981) risolasi misolida amalga oshirgan bo‘lsa, I.I.Umnyakova “Аннотированная библиография трудов академика В.В.Бартольда” (M., 1976) kitobi b-n Luninning izlanishlarini to‘ldirishga erishdi.

Aytish joizki, akad. B.V.V.ning 9 jildli asarlar to‘plamida, nafaqat O‘rta Osiyo tarixi, madaniyati va adabiyoti haqida so‘z boradi, balki temuriylar davrida mamlakatning siyosiy-ijtimoiy hayotida muhim rol o‘ynagan bir qator tarixiy shaxslar faoliyatiga tegishli tadqiqotlari o‘rin olgan. Shundaylardan biri N.dir. B.ning izlanishlari buyuk mutafakkir shoirning siyosiy arbob sifatidagi faoliyatini yoritishga xizmat qilgan. U N.ni o‘z davrining adolatli vazirlaridan bo‘lganini tarixiy faktlar b-n asoslab bergan. Jumladan, olimning “Мир-Али-Шир и политическая жизн” (Mir Alisher Navoiy va siyosiy hayot) deb nomlangan tadqiqoti mutafakkir shoirning arboblik faoliyati haqida yoritilgan muhim ish sifatida qadrlanadi. U temuriylar hukmronligi davrida mamlakatda adabiyot, san’at, ilm-fan rivojining oltin davrini N.ning vazirlik yillari b-n bog‘laydi. Aniqrog‘i, Samarqandda Mirzo Ulug‘bek boshlagan taraqqiyparvarlikni Sulton Husayn hukmronligi sharoitiga tatbiq etganini e’tirof qiladi. B.V.V. mazkur mavzuda ilmiy izlanishlar olib borgan A.Nikitskiy va Fransua Alfons Belenning tadqiqotlariga tayangan. Shuningdek, Xondamir va Mirxond asarlarida yoritilgan tarixiy ma’lumotlardan ham foydalangan. Olim N. hayotini o‘zidan ilgari kirishgan olimlar uning vazirlik faoliyatini yorqin tasvirlashga uringan bo‘lsalar-da, aynan Mashhadda yashagan davrlari oydinlashmay qolib ketganini o‘z tadqiqotida alohida ta’kilaydi. Shuningdek, B.V.V. o‘zining ushbu monografiyasida L.Bouvatning temuriylar davrida tamaddunning gullagan va tanazzulga uchragan davrlari qiyoslangan “О цивилизации эпохи темуридов” nomli mashhur maqolasi haqida bahs yuritadi va u Sulton Husayn hukmronligi davri, madaniyat-ma’rifatning rivojlangan yillariga umuman to‘xtalmagani, aksincha, maqolada temuriylar saltanatining qulashi sabablarining biroz bo‘rttirib ko‘rsatilgani u-n ham tanqid ham qiladi. V.V.B.ga ko‘ra, E.G.Brounning izlanishlari ham N.ning siyosiy arbob sifatidagi faoliyatini to‘la ochib berolmagan.

Temuriylar saltanatining paydo bo‘lish tarixidan tortib, so‘nggi yillarigacha bo‘lgan davrlari qalamga olingan mazkur monografiya “Eroniylar va Turkiylar”, “Hirot va uning ahamiyati”, “Alisher Navoiyning kelib chiqishi va yoshligi”, “Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro. Ilk kelishmovchilikka qadar”, “Dahshatli yillar va saltanat tanazzuli”, “Alisher Navoiy hayotining so‘nggi yillari” nomli olti bo‘limdan tashkil topgan. Unda olim mutafakkir shoirning aynan siyosiy arbob sifatidagi faoliyatini tarixiy manbalarga asoslanib ochib bergan. Kitob rus n.shunosligida nafaqat N. hayoti, balki o‘zbek mumtoz adabiyotining yorqin jihatlari berilgani b-n ahamiyatlidir, qolaversa, unda XV asr Xurosondagi madaniy, siyosiy, ijtimoiy hayot tasviriga keng o‘rin ajratilgan, ilmiy mushohada yetakchilik qiluvchi o‘ziga xos tadqiqot sifatida ham qimmatlidir.

Ad.: *Лунин Б.В. Жизнь и деятельность академика В.В. Бартольда. – Т., 1981; Бартольд В.В. Мир-Али-Шир И политическая жизнь. Сочинения. II том. Часть 2. Издательство Наука. – Москва, 1964.*

G.X.

BASIRAT – botiniy nigoh, qalb ko‘zi, g‘aflatga tushmay, tuyg‘ularga berilmay haqiqatni oldindan ko‘rish qobiliyati. N. haqiqat sirlarini shunday ko‘z b-n ko‘rib, idrok etishni istagan:

Sirri haqiqatdin o‘lub bahravar,
Ayla basirat ko‘zi birla nazar.

Qur’oni Karimda ham basiratga alohida e’tibor berish lozimligi ta’kidlangan: “Sizlarga Parvardigoringizdan basiratlar (haqiqatni idrok aylash qobiliyatlari, ko‘ngil ko‘zlari) keldi. Kim (ularni) ko‘rsa, o‘zi u-n ko‘rar. Kim Haqni ko‘rmoqdan ko‘r bo‘lsa, zarari o‘zigadir (An’om: 104).

B. Allohdan in’om etiladigan quvvat va ilohiy bir nur bo‘lgani u-n uning imtiyozi hamda samarasi ham boshqacha bo‘lgan. Bu haqda N. “... ko‘zlarin basirat sham’i yorutqonlar dunyo sori ko‘z solmaydurlar va ko‘ngullarin hidoyat ziloli oritg‘onlar olam “mehrini” zarrai ko‘ngul-

ga olmaydurlar” deydi. Shuning u-n ham ulug‘ shoir faqat haqiqat yoki mohiyatni emas, balki go‘zallikni, xususan, yorning husn-u jamoli va holini ham ko‘ngul nuri b-n ko‘rish zarurligini urg‘ulaydi:

Yoringni tanir ishiga mahorat ayla,
Diqqat ila holiga basorat ayla.

Abdulkarim Qushayriyga ko‘ra esa “Aslida basirat va nur deyilmish narsa ma’rifatdir. Rasulluloh (s.a.v.)ning “Mo‘min Alloh nuri ila nazar aylar” hadisi xuddi shu ma’noda anglashilishi kerak”. N.ning “basirat fani” iborasini qo‘llaganiga qaraganda, basiratning ma’rifatga daxldorligini ham u nazardan soqit qilmagan

Ad.: *Ҳаққул И. Навоийга қайтиш. – Т., 2007.*

I.H.

BASIT (ar. – yoyiq) – mustaf’ilun (3-hijo qisqa, qolganlari cho‘ziq – – – V –) va foilun (2-hijo qisqa, qolganlari cho‘ziq – – V –) asllarining ketma-ket takroridan hosil bo‘ladigan bahr (mustaf’ilun foilun mustaf’ilun foilun – – – V – / – V – / – – V – / – V –). U arab nazmiga xos bo‘lib, o‘zbek she’riyatida qo‘llanmaydi. Lekin bahr xususiyatlarini tushuntirish u-n N. “M.A.”da B.i musammani solim vazniga:

Ey sunbulung halqasi bo‘ynumg‘a toqib rasan,
Har tobida yuz balo, har torida ming shikan, –

baytini misol sifatida keltiradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т., 1998; Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – T., 2019.*

E.O.

BASMALA – 1. Qur’oni Karimning “Tavba” surasidan boshqa barchasi **“**Bismillahir rohmanir rohiym” jumlasi iborasi b-n boshlangan. 2. Mumtoz adabiyotda ijodkorlarning o‘z asarlarini shu oyat b-n boshlashlari yoki shu oyatga bag‘ishlangan bob, muqaddima, kirish qismi. N. ham barcha asarlarini mazkur jumla b-n boshlaydi. “X.”ni, xususan, “H.A.”ni shu an’ana asosida yozadi va oyatdagi 19 ta harfni “Hurufi maxazin” badiiy san’ati yordamida talqin qiladi. “Muddassir” surasining: “Uning ustida o‘n to‘qqiz farishta qo‘riqchilik qilur”, degan 30-oyatiga, “Tavba”-surasidan boshqa suralarning boshida keladigan mo‘jizaviy kalima ekaniga, islomda har bir ish (ijodiy ish)ning “Ibtido qilinur behad mehribon, nihoyatda rahimlik Alloh nomi ila” deya boshlanishiga urg‘u beradi:

Bismillohir rohmanir rohim,
Rishtag‘a chekti necha durri yatim.

Har dur anga javhari jondin fuzun.
Qiymat aro ikki jahondin fuzun.

Rishtasi xud iqdi jahon rishtasi,
Dema jahon rishtasi, *jon rishtasi*.

Ushbu oyat “X.”ning barcha dostoniga ham taalluqli. Bob oxirida ham N. o‘ziga murojaat qilib, ijodiy safari, ya’ni “X.”ni yozishga kirishganiga to‘xtaladi va shunday yozadi:

Istabon, ey xasta Navoiy, navo,
Bo‘yla safarg‘a qilur ersang havo.

Yo‘l yomon-u yaxshisidin yema g‘am,
Bismilloh, degul-u qo‘yg‘il qadam.

“Hayra sanoin limufizil – karam”,
Kim karamidin erur el muhtaram.

Bunday keng sharhlangan basmala N. uslubiga xos bo‘lib, boshqalar ijodida deyarli uchramaydi.

Ad.: *Ал-Қуръон ал-Карим (таржимон ва тафсир қилувчи Олтинхон Тўра). – Т., 1994;*

Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Ҳайитметов А. Темурийлар даври ўзбек адабиёти. – Т., 1996; Раджабова Б. Ислом маданияти ва Алишер Навоий (Ҳ.А. мисолида). – Т., 2015.

B.R.

BATLIMUS – qadimgi yunon faylasuf olimi Ptolemey Sharq ilmiy, tarixiy va badiiy adabiyotida shu nom b-n yuritilgan. "T.A.H." asarining "Hukamo zikri" bo‘limida Jolinus hakimning shogirdi sifatida tilga olinadi. N. uning hikmatlaridan namuna sifatida: "Nekbaxt uldurkim, – el holidin pand olg‘ay va badbaxt ulkim, aning holidin el pand olg‘ay", hikmatini keltiradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

A.A.

BAT Lidiya Grigorevna (1900–1985) – rus yozuvchisi, tanqidchi va tarjimon. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi (1970). U 1928-y.dan hikoya, ocherk, taqriz va qissalar yoza boshlagan. Uning o‘zbek xalqi hayoti va adabiyoti b-n yaqin aloqasi Toshkentda (1942–44) yashagan yillarida boshlangan.

N. hayoti va ijodiga bag‘ishlangan "Hayot bo‘stoni" (1948) qissasi B.L. adabiy faoliyatida muhim o‘rin tutadi. "Hayot bo‘stoni" – Bolalik yillari. Yigitlik chog‘lari. Kamolot. Keksalarning o‘git-nasihatlari kabi 4 qismdan iborat. Har bir qism "H.A.", "S.S." dostonlari hamda g‘azaldan keltirilgan baytlar b-n boshlanadi.

"Hayot bo‘stoni" adib M.Osim va A.Abdullayevlar tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan.

Ad.: *Бать Л. Ҳаёт бўстони. – Т., 2016.*

B.R.

BAFOYEV Bahrom (1940) – Sharqshunos olim, f.f. d-ri. B.B. 1968-y. "Alisher Navoiy asarlarida ism" mavzusida nomzodlik, 1989-y. "Navoiy asarlari leksikasi" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan. N.ning 1959–1966-yy. da nashr qilingan yigirma to‘rt asaridagi barcha so‘zlarni statistik jihatdan o‘rgangan. Uning hisobicha shoir o‘z asarida 26035 ta so‘z qo‘llagan. Ulardan 13000 dan ortig‘i o‘zlashma so‘zlar. Bu so‘z boyligining 53-55 foizini tashkil qiladi.

Shoir asarlarida 7973 ta arabcha, 5489 ta forscha so‘z ishlatilgan. N. turkiy so‘zlardan unumli foydalangan. Shoir asarlarida fe’llar ko‘p uchraydi. U ko‘p ma’noli so‘zlardan mahorat b-n foydalangan. Olim *bosh* so‘zining 40 dan ortiq uzual va okkazional ma’nolarda ishlatilishini ko‘rsatib bergan. Shoir omonim (*ilik-qo‘l, ilik-suyak ichidagi modda*), sinonim (*oq-safid-bayzo; surx-ahmar-humro*), antonim (*shoh-gado; jannat-do‘zax*)lardan mahorat b-n foydalangan. N. ishlatgan so‘zlarni mavzu jihatdan 31 guruhga bo‘lish mumkin. Ayrim misollar. 1. Inson tana a’zolari: *go‘sht, qo‘l, ko‘z, dast, dimog‘;* 2. Musiqaga oid atamalar: *arg‘anun, nay, ko‘s, maqom, mutrib, qo‘shuq*; 3. Vaqtga oid atamalar: *bahor, kech, tun, dushanba, dalv*; 4. Falakiyotga oid so‘zlar: *abr, osmon, yulduz, sitora, oy;* 5. Yozuv-chizuvga oid atamalar: *dabir, qog‘oz, varaq, kitob.*

Olimning statistik ma’lumotlarida munozarali o‘rinlar bo‘lishiga qaramay, N. leksikasini o‘rganishda katta hajmdagi ishni bajargan. Shoir yaratgan badiiy ijod durdonalari hajm va badiiy jihatdan yuksak pog‘onada turadi. N. qo‘llagan leksika mumtoz o‘zbek tili naqadar boy ekanini ko‘rsatadi.

To‘rt jildlik "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati" mualliflaridan biridir.

Ad.: *Алишер Навоий асарлари лексикаси (1983), Кўҳна сўзлар тарихи (1991); Навоий асарлари лексикаси. – Т., 1983.*

E.U.

BAQO (ar.) – 1. Boqiylik, abadiylik; borlik. 2. Mavjudlik, borlik. 3. Ishonch. 4. B. tasavvufda fanodan keyingi maqomdir. Orif Allohga oid haqiqatlar b-n o‘zida mavjud narsalardan kechadi va baqobilloh martabasiga erishadi. Bu martabada bashariy irodada ilohiy iroda va sifatlar namoyon bo‘ladi. B.da ikki jihatga ishora qili-

nadi. 1. Allohning xulqi b-n xulqlanish. Yomon xulqlarning, xatti-harakatlarning yo‘qotilishi fano, ularning o‘rnini ezgu xulq va go‘zal xatti-harakatlar egallashi baqodir 2. Allohning sifatlari b-n sifatlanish. Bandaning o‘z nafsini tanishi va Allohning sifatlari b-n sifatlanishi, ezgu vasflarga sohib bo‘lishi baqodir. Imom Qushayriy va Abubakr Sarrojlarning fikriga ko‘ra, nafsida foniy bo‘lgan Haq taolo b-n boqiy bo‘lgani kabi Allohda foniy bo‘lgan ham Alloh b-n boqiy bo‘ladi. Allohda foniy bo‘lishga fanofilloh, Allohda boqiy bo‘lish holatiga esa baqobilloh deyiladi. Mana shu holatlarga ega bo‘lganlarga foniyfilloh va boqiybilloh deyiladi.

N. asarlarida B.ning ham lug‘aviy, ham tasavvufiy ma’nolari ko‘p qo‘llanilgan. Ulug‘ mutafakkir shoir dunyoning, umrning, mol-u mansabning o‘tkinchiligi haqida falsafiy mushohadalar yuritib, ularning foniyligini, baqosizligini kitobxonga eslatib turadi. U Sa’d nomiga muammo yozib, shunday deydi:

Bu gulshan ichraki yo‘qtur baqo guliga sabot,
Ajab saodat erur chiqsa yaxshiliq bila ot.

“S.I.” dostonida davrning, hayotning o‘tkinchiligini ta’kidlab yozadi:

Chu davrong‘a yo‘qtur baqo-yu sabot,
Ham andin erur bevaforoq hayot.

N.ning irfoniy g‘azallarida, “X.” dostonlarida, ayniqsa, “L.T.” va “N.M.” kabi tasavvufiy asarlarida B.ning biz yuqorida keltirgan so‘fiyona mazmundagi izoh va talqinlari ko‘zga tashlanadi. Shoir she’rlarida B.ning alohida hamda fano so‘zi b-n yonma-yon kelgan holatlarini ko‘p kuzatamiz:

Birov yetti sangakim o‘zlugi dashtini tay qildi,
Baqo istar kishi avval kerak qilsa fano paydo.

N. “L.T.” dostonida B. maqomi haqida alohida bob va fasllarda to‘xtalgan. Ulug‘ shoirning o‘zi ham lirik chekinishlarida B. maqomini istab, munojotlar qilgan:

Topmoq imkon yo‘q visoling komini,
Ul fanolardin baqo anjomini.

O‘yla Foniy qismi, yo Rab, ber Fano,
Qim baqo kunjidin ul topqoy g‘ino.

Qil o‘zungda budini avval nabud,
Ul nabudi ichra bergil bir vujud.

Kim anga ish ul vujud ichra tamom,
Bo‘lg‘ay-u topqoy visoling vassalom.

“N.M.” asarida ham B.haqida yoki shu maqomga yetgan avliyolardan ko‘plab naql qilingan. “Va ul **(**Abu Said Xarroz (q.t.s.) avval kishidurki fanovu baqo ilmida so‘z debdur”; “Shayx (Shayx Shihobuddin Suhravardiy (q.s.) unga bu holat baqo maqomining boshlanishi, oldingi holatdan a’lo va yuksakroq ekanligini anglatdi va uni xotirjam qildi”.

N. asarlarida B. komi – Boqiylik tilagi; B.yi abad – Abadiy borliq; B.yi jovid, B.yi jovidoniy – Doimiy borliq; B.yi komil – Tuganmas boqiylik; B. sarchashmasi – Abadiy tiriklik manbayi, B. naqdi – Mavjudlik davri; B**.** fayzi – boqiylik lutf-u karami kabi o‘nlab iboralar orqali ham B. so‘zining rang-ba rang ma’no qirralari ochib beriladi.

Baqo mumtoz adabiyot, tasavvufiy istilohda fanoning ziddi o‘laroq tushunilib, oxirat dunyosi, ruhga mansub tushuncha sifatida qaraladi. Bu dunyo boqiy emasligi ta’kidlanadi:

Ablah oni bilki, olamdin baqo qilg‘ay tama’,
Armaq ulkim, olam ahlidin vafo qilg‘ay tama’.

“M.Q.”dagi hikmatli tanbehlaridan birida esa: “Umrning bukun tonglalig‘i mafhum emas, balki bu kun axshomg‘acha ne bo‘luri ma’lum emas. Bashar xayli dori baqog‘a ahli azimatdur va tiriklik bir necha kun g‘animatdur. Bu dori fanoni besh kun g‘animat bil va dori baqoning uzun yo‘li yarog‘in qil. Ul yo‘l yarog‘i solih amaldur, andin so‘ngra e’timod Haq lutfig‘a azza va jalla”, – deydi.

Suluk ahli nafsni tarbiyalash orqali bashariy irodadan ilohiy, ya’ni eng oliy irodaga yuksalishgan. Solik tabiatida go‘zal axloqiy, ma’naviy, ruhiy sifatlarning barqarorlashib, fano maqomidan baqo darajasiga yuksalishgan. N. bu holni quyidagicha izohlaydi:

Istasang mulki baqo, salb qil o‘zlukni burun,
Ki suluk ichra fano ahlig‘a budur uslub.

Baqo mulki yoxud baqobillohga erishish o‘zlik, ya’ni nafsdan voz kechib, o‘zlik, ya’ni malakoniy xususiyatga ko‘tarilish orqali ekanligi N.ning barcha asarlarida to‘laqonli sharhlangan. “M.Q.”dagi xarobot ahli zikrida baqo maqomiga erishganlar xususida: “Vujud maykadasi tufrog‘ida foniy, umidi Haq karamidin baqoyi jovidoniy. Rind va gadog‘akim yetib bu iqbol va davlat, shohlarg‘a aning holidin orzu va hasrat”.

B. Al-Boqi, ya’ni Alloh taoloning sifatidir: “Ko‘ngul bila Haq yodi bila bo‘lmoqdur va aning g‘ayri xaylidin xoliy bo‘lmoqdur. Va ul mashg‘ulluq “Ma xalaqalloh” fanosidur va “mo xalaqalloh” Xoliqining baqosidur”. Boqiy hayot egalari sifatida N. eranlarni ko‘rsatadi va ularga ergashish zarurligini ta’kidlaydi: “Eranlar xizmatig‘a ulki umrin sarf etar, agarchi umri ketar, ammo jovid umrig‘a yetar. O‘zungni bu zumradin yiroq tutma, boshing borsa bu muddaoni unutma. Umr foniydur bevafo, ul boqiy hayot mujibi baqo”.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик. 1-жилд. – Т., 1983; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва табъироти ирфоний. – Теҳрон, 1370 (ҳ.-ш.); Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005; Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. – Душанбе, 1987.*

Z.R.

BAQOIY (XV asr) – shoir, xorazmlik. N. “M.N.”da uni qobiliyatli va yaxshi xulqli deb ta’riflaydi. U onasining rizosi u-n nochor va kambag‘al odam bo‘lsa-da, haj safariga ketdi. Shu vaqtga qadar hech xabari kelmadi, deb yozadi va bir bayt forscha she’rini keltiradi.

“M.N.”da yana bir B. taxallusli shoir haqida ma’lumot bor. Garchi u o‘zini muammo sohasida mashhurlardan hisoblasa-da, N. undan biror durustroq muammo eshitmaganini, she’riyatda ham mazmun jihatidan juda g‘alati fikr yuritishini va shaklda ham xatolarga yo‘l qo‘yishini yozadi. O‘q otishda mohir deb eshitaman, deydi N. “M.N.”dagi fikrlarga xilof ravishda boshqa manbalarda ikkinchi B. ijodi haqida yaxshi fikrlar bildirilgan. Jumladan, Nisoriy “forsiy va turkiy tillarda yozgan she’rlari ko‘p va juda yaxshi hamdir” deb yozadi. Bu B. keyinchalik Ubaydullaxon saroyiga yaqin bo‘lgan. “Noz-u niyoz” nomli masnaviy yozgan.

Nisoriy asarida misol sifatida keltirilgan she’rlari, shu jumladan, o‘zbek tilidagi g‘azali B. ning ancha kuchli shoir ekanidan dalolat beradi. G‘azal matla’si quyidagicha:

Yuz shukrki har beg‘am ila hamdam emasmen,
Ishqing g‘amidin shodman-u beg‘am emasmen.

B. Balxda vafot etgan va Xoja Sulton Ahmad Xuzraviya maqbarasida dafn etilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

S.G‘.

BAQOIY SAMARQANDIY (vafoti Samarqand, 1522) – shoir, xattot. Taniqli tojik adabiyotshunosi A.Afsahzodning ma’lumot berishicha, u N.ning “M.N.” tazkirasini forsiyga tarjima qilgan. Hakim Muhammadshoh Qazviniy uni barcha fazilatlar, ilmiy va amaliy kamolotni o‘zida mujassam etgan yetuk inson sifatida ta’riflay-

di. Sohibdevon shoir bo‘lgan. Devoni bizgacha yetib kelmagan. Quyidagi bayt uning tab’i nazmidan:

Qadam, ki dar rahi ishq ast, beshtar monam,
Ba mulki ishq rasam yo ba roh sar monam.

Tarj.: Ishq yo‘liga jiddu jahd bilan qadam qo‘yay, toki ishq mulkiga yetay yoki bu yo‘lda boshimni fido qilay.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

E.O.

BAG‘DOD – Iroq arab Respublikasining poytaxti, mamlakatda eng yirik madaniy markaz hisoblanadi. Aholisi 9 mln. (2015-y.ga ko‘ra). 762-y.da Xalifa al-Mansur shaharga asos solgan. Dastlabki nomi Madinat-us-Salom Sulh shahri deb nomlangan. Hozir ham arab, Yevropa, hind, rus yozma manbalarida shu nom b-n uchraydi. Xorun ar-Rashid hukmronligi davrida (IX asr) B.da ko‘plab qasr, madrasa, ma’muriy va istiqomat b-n bog‘liq ijtimoiy binolar qurilgan. 1393-1401-yy.da Amir Temur shaharni qo‘lga kiritgan. 1638-y.da Usmonli turklar imperiyasi tasarrufiga kirgan. 1958-y. 14-iyulda Iroq poytaxti deb e’lon qilingan. O‘rganishimizga ko‘ra, B. ilm-fanning ilk qadimiy o‘chog‘i hisoblanadi. Islom olamidagi ko‘plab mashhur buyuk shaxslar B. madrasalarida tahsil olgan. B. akademiyasi nomi b-n ham mashhur bo‘lgan. Ko‘plab adabiy-tarixiy, ilmiy-siyosiy manbalarda B. nomi bot-bot tilga olinadi.

N. ham o‘z asarlarida B. tarixiy toponimini turli badiiy maqsadlarda qo‘llagan. Buni biz N. ning “N.M.”, “T.M.A.”, “T.A.H.” asarlari matnida uchratishimiz mumkin. N. B. atamasini ham asarlarida qo‘llagan boshqa tarixiy toponimlari qatori quyidagi tamoyillarda ishlatgan. Birinchidan, laqab, nisba ma’nosida, m-n: “N.M.”da Bag‘dodiy shaklida o‘ndan ortiq shayx, orif insonlar yodga olingan va ularga alohida fiqralar bag‘ishlangan.

Ibrohim Sayyod Bag‘dodiy (r.t.) –“ Kuniyati Abu Is’hoqdur. Ma’ruf Karxiy bila suhbat tutubdur. Ma’ruf (q.s.) anga degandurki, faqirni lozim tut va qo‘rqma bu jihatdin. Aning mazhabi tajridu inqito’ erkandur. Junayd (q.s.) debdurki, ul bir kun Sariy Saqatiy qoshig‘a keldi, bir pora hasirni o‘ziga izor qilib erdi. Sariy as’hobidin biriga dedikim, o‘n diramg‘a aning uchun bozordin bir jubba olg‘ay. Dag‘i dedikim, Ey Abu Is’hoq, kelgilki, menda o‘n diram bor erdikim, sening uchun bu jubbani sotqib olindi. Ibrohim dedikim, faqr ahli bila o‘lturursen va o‘n diram zaxira qilursen va ani kiymadi”. Yoki N. tilga olgan Shayx Majdidin Bag‘dodiy, Abu Hamza Bag‘dodiy, Sayyid ut-toifa Junayd Bag‘dodiy kabi.

Ikkinchidan, qadimiy shahar nomi sifatida, uchinchidan, shu shaharda yashagan yoki u-bu darajada ma’lum muddat istiqomat qilgan buyuklar nomining zikrida. Musulmon olamida muhabbat – xalq o‘rgatadigan narsa emas, balki u Haqning in’omi va fazlidir, deb tarbiya bergan shayx Muhammad Karxiyning qabri ko‘hna B.da ekanligini “Aning qabri Bag‘doddadur va xaloyiq qiblai duosidurki, derlar – anda duo mustajob bo‘lur”, deb yozgan. Yoki Fath b. Shaxraf Marvaziyning o‘n uch yil davomida Bag‘dodda istiqomat qilganini shunday “O‘n uch yil Bag‘dodda erdi” deb keltirgan. N. tazkirada yozishicha, asli marvlik Bishr b. Horis b. Abdurahmon shayx karomat, islom ma’rifati, Qur’on, hadis masalalarini o‘rganish u-n B.da yashagani borasida quyidagicha xabar bitgan: “Avvalg‘i tabaqadindur. Aning ham kuniyati Abu Nasr. Derlarki, Marv viloyatidindur. Bag‘dodda sokin bo‘ldi”. N. tazkiraning ba’zi o‘rinlarida o‘zi boshqa shaharda tug‘ilib, voyaga yetib, ammo ma’lum bir tariqat maqomi-

ga yetishda B.dagi pirlardan vasila olganiga ham ishora qiladi: “Horis b. Asad Muhosibiy – Avvalg‘i tabaqadindur, Kuniyati Abu Abdullohdur. Mashoyix ulamosidindur. Zohir ulumi va botin ulumig‘a jome’. Va anga tasnif bor. Asli basraliqdir va bag‘dodlig‘larning piridur”.

N. “T.M.A.”da ham B.ni ma’lum bir o‘rinlarda tilga olgan, ya’ni Baxman podshoh b-n bog‘liq fiqrada uning B.da bir obod rabot qurgani haqida eslatma yozgan: “Va aning osoridin Forsda Guvorbandidurkim, amir Sayfiddin Mas’ud degan Bag‘dod yo‘li ustida rabot yasab va yana Baso va Chahrum va Busig‘on ham aning osoridindur”.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

B.R.

BAHLULBEK (Amir Nizomiddin Shayx Bahlul) – N.ning akasi. Sulton Husayn Boyqaro hukmronligi davrida davlat ishlarida ishtirok etgan va uning amirlaridan hisoblangan. Lekin manbalarda u haqida ma’lumotlar juda oz. Uning nomi faqat N.ning “M.N.” tazkirasida hamda Xondamirning “Makorim ul-axloq” asarida tilga olingan. N. akasining Xorazmda hokimlik qilgani va amorat devonida muhr bosganini yozadi. B. keyinchalik xizmatni tark etgan va uzlatga chekingan. Nazarimizda u haqidagi ma’lumotlarning kamligi shu b-n izohlanadi.

B.ning Sulton Husayn ismli o‘g‘li va Mir Ibrohim degan nevarasi bo‘lgan. Mir Ibrohimni N. o‘g‘il qilib olgan edi.

N. akasining Xorazmda hokim bo‘lganini qayd etgan bo‘lsa ham, yilini ko‘rsatmagan. Agar Sulton Husayn saltanatining so‘nggi yillarida Xorazmda Chinso‘fibek, undan oldin Behbudbek, 1480-y.ning oxiri 90-yillarda Abdulxoliqbek hokim bo‘lganini hisobga olsak, Shayx Bahlulbek ushbu viloyatni 70-yillarning oxiri 80-yillar boshida idora qilgan deb taxmin qilish mumkin. N.ning B.ning amorat devonida muhr bosgani haqidagi ma’lumoti ham diqqatga sazovor. Ma’lumki, N. Sulton Husayn mirzo saroyida o‘z faoliyatini muhrdorlikdan boshlagan edi. 1480-1481-yy.da esa uning ukasi Darvesh Alibek muhrdor etib tayinlangan. Bu voqeaga “Darvesh Alibek muhr zad” deb ta’rix tushirganlar. Bu ma’lumot muhrdorlik bir qancha vaqt N. oilasi vakillarida bo‘lganini ko‘rsatadi.

Xondamir “Makorim ul-axloq”da N.ning vafoti va dafn marosimi haqida ma’lumot berar ekan, Sulton Husayn Boyqaroning uch kun N. uyida ta’ziya tutgani, uning yaqin kishilariga tasalli berganini qayd etadi va B. nomini tilga oladi: “Sultoni Sohibqiron uch kungacha ul ahli dillar boshlig‘ining uyida turdi, Xudoyi va xatm buyurdi, shuning b-n birga nur sochuvchi zotning mozori boshiga borib, ziyorat shartlarini bajo keltirdi, oliy nasab amirning ulug‘ birodari Amir Nizomiddin B. va ul janobning o‘g‘ilxoni amir Kamoluddin Sulton Husayn va oliy hazratning boshqa yaqinlariga mehribonlik ko‘rsatdi”. Bu ma’lumot B. ukasidan uzoq yashagani, u vafot etganda tirik ekanidan dalolat beradi. B.ning qachon vafot etgani ma’lum emas

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Т., 1967.*

S.G‘., Q.E.

BAHODIR I – turkiy hukmdorlarning tituli, unvon. Ularning ismlariga qo‘shib aytilgan va yozilgan. Ayrim temuriy hukmdorlar va shahzodalar ham mazkur titulga ega bo‘lgan va manbalarda ismlariga “Bahodir”, “Bahodirxon” unvonlari qo‘yilgan holda tilga olingan. M-n, Abdurazzoq Samarqandiy “Matla’i sa’dayn va majma' bahrayn” asarida Shohrux Mirzoni “Saltanat va finning ko‘makchisi hazrat xoqoni Said Mirzo Shohrux Bahodir” deb zikr etadi.

N. asarlarida Sulton Husayn Boyqaro ismiga “Bahodirxon” tituli qo‘shiladi. M-n, “M.L.” da shohning alqobi shunday bitilgan: “As – sulton binnis – sulton, al xoqon binnil xoqon, muiz us

– saltana vad dunyo, vad din Abulg‘oziy Sulton Husayn Bahodirxon”.

N.ga zamondosh temuriy shahzodalardan Sulton Badiuzzamon Mirzo hamda Sulton Uvays Mirzo shoir asarlarida ismlariga “Bahodir” tituli qo‘shilgan holda zikr etilgan.

II. O‘rta asrlarda, shu jumladan, temuriylar davrida harbiy xizmatda jasorat ko‘rsatgan jangchilar, navkarlarga beriladigan unvon. Bu unvonga sazovor bo‘lgan sipohiylarga alohida e’tibor va hurmat ko‘rsatilgan va ular muayyan imtiyozlarga ega bo‘lgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

Q.E.

“BAHORISTON” – Abdurahmon Jomiyning 10 yashar o‘g‘li Ziyovuddin Yusuf u-n darslik sifatida Sa’diy Sheroziyning “Guliston” asariga o‘xshatib 1487-y.da yozgan axloqiy-tarbiyaviy yo‘nalishdagi nasriy asari. U sodda va tushunarli tilda, ravon uslubda yozilgan bo‘lib, xalqona maqol va iboralar, naql va rivoyatlardan keng foydalanilgan. “B.” muqaddima, 8 ravza (fasl, bob): 1) shayx-u oriflar haqida hikoyalar; 2) donishmandlarning hikmatli so‘zlari; 3) shohlarning adolat va ezgu axloqi haqida; 4) saxovat va oliyjanoblik targ‘ibi; 5) shavqangez ishqiy hikoyatlar; 6) zavqbaxsh sho‘x hazil-mutoyibalar: 7) she’r va shoirlik xususida; 8) hikoyat, masallar va xotimadan iborat. Har bob avvalida “Foyda” degan debocha bo‘lib, u bobda qo‘yilgan maqsadga ishora qiladi. She’r va shoirlikka bag‘ishlangan 7-ravza o‘ziga xos adabiy tazkira maqomiga ega. Unda she’r mohiyati va tabiati, shoirlik iste’dodi va xususiyatlari haqida fikr yuritibgina qolmay, X–XV asrlarda yashab ijod etgan 39 shoir haqida ma’lumot beriladi. M-n, N. haqida shunday yozadi: “Bizning zamonamiz bu sohibdavlat vujudi ila musharrafdir. U o‘z martabasi, ulug‘ligi va shohga yaqinligi va shuningdek, Alloh ato etgan va o‘qish-o‘rganish bilan orttirilgan ilm-u donishi va aql-u zakovati b-n she’rlari husn-u kamoli uchun har qanday maqtovdan yuqori tursa-da, u o‘zini past tutib, she’r ahli jamoasiga qo‘shildi va boshqalarga ham pardani oradan ko‘tarib, she’riyat yo‘lini ochib berdi. Ammo haqqoniyatini aytganda, u mana shu anjumanlarning barchasiga boshliq va she’r ahli sardaftarida nomi bitiq...

Tabiati taqozosi va qobiliyati keng fazosiga ko‘ra, u turkiy va forsiy she’rlarida yuksalishga muyassar bo‘lsa-da, turkiyga ko‘proq moyillik ko‘rsatdi va bu tildagi g‘azaliyoti 10 ming bayt-dan ziyodroq bo‘ldi.

Nizomiy “Xamsa”si muqobilida yozgan masnaviylari 3 ming baytga yaqin va bu tilda hech kim bunchalik ko‘p va xo‘b she’r yozmagan.

Forsiy she’rlari orasida Amir Xusrav Dehlaviyning “Yaxshilar daryosi” qasidasiga javob tariqasida bitilgan qasidasi bor. Unda ajib mazmun va nozik xayolotga ega baytlar juda ko‘p...”

Umuman, “B.” XV asr jamiyati va undagi turli toifa, tabaqalar hayoti, axloqi, odatlari aks etgan o‘ziga xos badiiy qomus hisoblanadi.

“B.” Sh.Shomuhamedov tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilinib, bir necha marta nashr etilgan.

Ad.: *Абдураҳмон Жомий. Баҳористон. – Т., 1997; Ғаниева С. Навоий ёдга олган асарлар. – Т., 2004.*

E.O.

“BAHORIYA” – astrobodlik shoir Mavlono Nizom qalamiga mansub qasida, fors tilida yozilgan. N. “M.N.” tazkirasida u haqda shunday deydi: “...yaxshi aytur va bu “Bahoriya” qasidasi yaxshi voqea bo‘lubdurkim:

Boz gulzori xat az sabzayi tar pando kard,
Kori bo‘stoni jahon rangi digar paydo kard”.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

B.R.

BAHR (ar. – dengiz) – aruz tizimida 8 asl ruknning turli tarkibda takrorlanishidan hosil bo‘ladigan asosiy o‘lchov turi. Aruz ilmida 21 ta B. bor. Fan asoschisi Xalil ibn Ahmad 15 ta B.ni

ko‘rsatgan edi. Fors aruzshunoslari unga yana mutadorik, qarib, g‘arib (jadid), mushokil kabi 4 ta B. ni qo‘shdilar. N. ham “M.A.”da 19 ta B. haqida ma’lumot beradi. Yana 2 ta B.ni turkiy aruzshunoslikka Bobur kiritgan.

B.lar 3 guruhga bo‘linadi: 1) faqat 1 ruknning takroridan hosil bo‘ladigan; 2) bittadan olingan 2 ruknning takroridan hosil bo‘ladigan; 3) 1 ta 1 xil va 2 ta boshqa xil ruknning takroridan hosil bo‘ladigan B.lar.

7 aslning aynan takroridan 7 B. hosil bo‘ladi: 1) foilotun asli takroridan ramal; 2) mafoiylun asli takroridan hazaj; 3) mustaf’ilun asli takroridan rajaz; 4) fa’u(v)lun asli takroridan mutaqorib; 5) foilun asli takroridan mutadorik; 6) mutafoilun asli takroridan komil; 7) mafoilatun asli takroridan vofir. Maf’u(v)lotu asli yakka holda takrorlanmaydi va biror B.ni vujudga keltirmaydi.

8 aslning bir-biri b-n qo‘shilib takrorlanishidan yana 10 ta B. paydo bo‘ladi: 1) mafoiylun va foilotun asllari takroridan muzore’; 2) foilotun va mustaf’ilun asllari takroridan xafif; 3) mustaf’ilun va foilotun asllari takroridan mujtass; 4) musta’filun va maf’u(v)lotu asllari takroridan munsarih; 5) maf’u(v)lotu va mustaf’ilun asllari takroridan muqtazab; 6) fau(v)lun va mafoiylun asllari takroridan tavil; 7) foilotun va foilun asllari takroridan madid; 8) mustaf’ilun va foilun asllari takroridan basit; 9) mafoiylun va fau(v)lun asllari takroridan ariz; 10) foiloun va foilotun asllarining takroridan amiq.

Ikkita bir xil va bitta boshqa xil rukn takroridan yana 4 ta B. hosil bo‘ladi: 1) 2 ta mafoiylun va 1 ta foilotun takroridan qarib; 2) 2 ta foilotun va 1 ta mafoiylun takroridan mushokil; 3) 2 ta foilotun va 1 ta mustaf’ilun takroridan g‘arib; 4) 2 ta mustaf’ilun va 1 ta maf’u(v)lotu takroridan sare’.

Bu 21 bahrdan quyidagi 9 tasi arab va fors she’riyatiga xos bo‘lib, o‘zbek she’riyatida qo‘llanmagan: vofir, muqtazab, madid, basit, qarib, mushokil, g‘arib, ariz va amiq. Mutadorik, komil va tavil B.laridan esa nihoyatda kam foydalanilgan. Hazaj, ramal, rajaz, muzore’, mutaqorib, xafif, mujtass, munsarih, sare’ kabi 9 B. juda faol bo‘lgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Бобур. Мухтасар. – Т., 1971; Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т., 1998; Олимов М. Рисолаи аруз. – Т., 2002; Сирожиддинов Ш., Юсупова Д., Давлатов О. Навоийшунослик. Дарслик. – Т., 2018; Юсупова Д. Аруз ва мумтоз поэтикага кириш. – Т., 2020.*

E.O.

BAHROM (Mirrix) – Quyosh sistemasidagi sayyora. Hozirgi ilmiy tilda Mars deb ataladi. O‘rta asr Sharq olimlarining tasavvurlariga ko‘ra, u beshinchi osmonda joylashgan. Bunga ishora N. asarlarida ham mavjud. “S.I.” dostonidagi ushbu baytda ana shunday ishorani ko‘rish mumkin.

Beshinchiga chu yetkurub gomni,
Qilib bandayi amri Bahromni.

Sharq mumtoz adabiyotida B. urush, qon to‘kish, qasos ramzi hisoblanadi. Shu sababli N. she’riyatida u ko‘pincha qo‘lida qilich b-n tasvirlanadi. M-n, “S.S.” dostonida muallif u haqda shunday yozadi:

Savlatig‘a chu ko‘z soldi Bahrom,
Tig‘iga berdi qin aro orom.

Shu dostonning 9-bobida shoir B.ga quyidagicha xitob qiladi:

Qing‘a solg‘il qilichni, ey Bahrom,
Fitna xaylig‘a ber dame orom.

Bu hol bejiz bo‘lmay, B.ning kin, qasos, qon to‘kuvchi qotillik ramzi sifatidagi ma’nosi b-n bog‘liqdir. “S.S.” dostonida N. doston qahramoni va sayyora nomlarining bir xilligidan foydalanib, go‘zal bir bayt yaratadi:

Yuz yoshurg‘och quyosh diloromi.
Sochti ashkin sipehr bahromi.

Baytda tun tasviri berilgan bo‘lsa-da, ayni paytda bu satrlarda asar qahramoni shoh Bahromning Diloromdan ayrilgan paytdagi ahvoli ham o‘z aksini topgan. Bahrom timsoli N. lirikasida ham qo‘llaniladi va bunda ham yuqorida qayd etib o‘tilgan ma’nolarni ifodalovchi ramz funksiyasini bajaradi:

Chun chiqar Bahromi qotil,
ko‘zlaring andishasi,
Xasta jonimni qotili xanjari
ozor etar.
Ne qotildur ko‘zungkim,
to‘ksa qon Bahrom shaklidur,
Taammul qilsalar maqtulning
har qatra qoninda.

Bunga o‘xshash misollar N.ning o‘z badiiy niyatlarini amalga oshirishda B. timsolidan muvaffaqiyatli foydalanganidan dalolat beradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик, 3-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

Q.E.

BAHROM BINNI BAHROM BINNI BAHROM – Sosoniylar sulolasiga mansub hukmdor. Eramizning 293-y.ida qisqa muddat taxtda o‘tirgan. Yevropa tarixnavisligida Varaxran III deb ataladi. Bahrom binni Bahromning, ya’ni Varaxran II ning o‘g‘li. Onasi – Shopurduxtan. Otasi uni juda kichiklik paytidayoq taxt vorisi deb e’lon qilgan va Sakaston hokimi etib tayinlagan. Bahrom binni Bahrom o‘lgandan keyin B.B.B.B.B. hukmdor deb e’lon qilingan. Lekin qarindoshi Narse uning hokimiyatini tan olmagan va isyon ko‘targan. Ajamning g‘arbiy viloyatlari to‘lasicha Narseni qo‘llab-quvvatlagan. Ularning ko‘magi b-n Narse poytaxtga qo‘shin tortgan. B.B.B.B.B. yosh bo‘lganligi sababli qarshilik ko‘rsata olmagan. Vazir Vaxunam B.B.B.B.B.ni himoya qilishga uringan. U qo‘shni hukmdor Aturfarnbagdan yordam so‘ragan. Biroq Narse Aturfarnbagni tor-mor keltirgan va o‘ldirgan. Shundan so‘ng vazir Vaxunam va B.B.B.B.B. ham qatl qilingan.

N. “T.M.A.”da B.B.B.B.B. haqida ma’lumot bergan. Uning otasi Bahrom binni Bahrom o‘limidan so‘ng uning o‘rniga taxtga o‘tirgani va qisqa muddat shoh bo‘lganini ta’kidlagan. N.ning yozishicha, B.B.B.B.B. hukmronligi atigi to‘rt oy davom etgan. N. bergan ma’lumotlar orasida B.B.B.B.B. Ajam tarixida birinchi marta shohanshoh unvonini olgan hukmdor ekanining qayd qilinishi diqqatga sazovor. Shu b-n birga N. ayrim yozganlari hozirgi zamon tarixchilarining tadqiqotlarida bildirilgan fikrlardan farq qiladi. Yuqorida aytib o‘tilganidek, tarixiy tadqiqotlarda B.B.B.B.B. qarindoshi, ya’ni otasining amakisi bo‘lmish Narse isyoni tufayli hokimiyatdan mahrum bo‘lgani va o‘ldirilgani qayd qilinadi. “T.M.A.”da esa B.B.B.B.B.ning o‘ldirilgani haqida hech nima deyilmagan. Narse esa (Navoiy uni Narsi deb ataydi) uning o‘g‘li sifatida tilga olingan va otasi vafotidan so‘ng taxtga o‘tirgani qayd qilingan. B.B.B.B.B. zikrini N. quyidagi ruboiy b-n nihoyalaydi:

Shahanshah chun surdi olamg‘a raxsh.
Quyoshdek edi-yu dahr uza nurbaxsh .

Necha mehrdek topti avji kamol.
Falak davridin topti oxir zavol.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Дьяконов М.М. Очерк истории Древнего Ирана. – Москва, 1961; Грантовский Э.А. и другие. История Ирана. – Москва, 1974.*

Q.E.

“BAHROMNING MAY MASTLIG‘I...” – “H.A.” dostonining o‘n to‘qqizinchi maqolatiga ilova etilgan hikoyaning boshlanishi. Sharq adabiyotida mardlik b-n taxtni qo‘lga kiritgan,

maishatga berilgan, hushiga kelganda mamlakat obodonligi, yurt farovonligi, san'at rivojiga ham ahamiyat bergan qadimgi Eron shohi, Yazdijirdning o'g'li Bahrom haqida ko'pgina she'riy va nasriy asarlar yaratilgan. "H.A." dostonining ushbu maqolatida N. Xuroson davlati va uning poytaxti – Hirotning XV asr ikkinchi yarmida ko'p jihatdan rivojlangani haqida fikr yuritar ekan, bunda Sulton Husayn Boyqaroning ham roli bo'lganini ta'kidlab, maqolat oxirida Bahrom haqidagi mazkur hikoyani keltiradi.

Bahrom mamlakatni obod qilish, odamlarning ko'nglini ovlash o'rniga aysh-ishratga berilib, ov qilib yurar ekan, uylar xarob, odamlarning hammasi och-yalang'och bir yerga kelib qoladi. Ochiqqan B.ning oldiga esa zo'rg'a bitta non b-n bir kosa suvni topib qo'yadilar. B. hayron bo'lib, bunday qashshoqlik va vayronagarchilikning sababini surishtira boshlaydi. Bahromning shohligini bilmagan qishloq xalqi bularga bosh sabab shohning, uning odamlarining zulmi, beparvoligi ekanini aytadilar. Bundan qattiq ta'sirlangan Bahromning ko'nglida shu payt aysh-ishratni yig'ishtirib, xalq, mamlakat b-n shug'ullanish, adolat ko'rsatish niyati paydo bo'ladi ("Zulm qo'yub, adl durur niyati"). Yaxshi niyat o'z xosiyatini ko'rsatib, shu ondayoq ko'p yillardan buyon suv chiqmayotgan korizdan shirin suv otilib chiqqani to'g'risida xabar keladi. Bahrom bu voqeadan ham o'ziga xulosa yasab, mamlakatni adolat b-n boshqara boshlaydi.

N. Bahrom obraziga keyinchalik "T.M.A."da ham to'xtalgan esa-da, ammo unga ijtimoiy-siyosiy planda birinchi marta shu hikoyasida to'xtalgan va uning esda qoladigan yorqin romantik obrazini yaratgan edi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

Ab.H., M.A.

BAHROMI GO'R HIKOYATI – "S.I." dostonining N.ning mehmon kutish qoidalari haqidagi mulohazalari tasdig'i u-n keltirilgan hikoyat. Unda naql qilinishicha, Bahrom Go'r bir kuni ovga chiqqanida bir qulonning izidan tushib, sipohidan uzoqlashib ketadi. Sahroda tentiray-tentiray ko'chmanchilarning chodirlari oldidan chiqib qoladi. Ochlik-tashnalikdan holdan toygan shoh uylar qoshidagi daraxtning soyasiga tushib, kapa sohiblariga qarata: "Men bugun sizlarga mehmonman – biror narsa olib kelib mezbonlik qiling", – deydi.

Bu yerdagi uch kapa sohibidan biri Qorunday badavlat bo'lsa ham, lekin ziqna edi – shuning u-n shohning chorloviga e'tibor ham bermaydi. Biri esa isrofgar bo'lib, darhol qo'y so'yib, qozon osadi. Holbuki, ochlikdan tinkasi qurigan mehmonning kabob pishishini kutishga toqati yo'q edi. Lekin ulardan biri aqlli, ko'pni ko'rgan kishi bo'lib, hayallamay mehmonning oldiga qatiq b-n non qo'yadi. Uni yeb, mehmonning nafsi orom oladi. Keyin donoga behisob mol-dunyo beradi, baxilni koyiydi, isrofgarga esa ta'na qiladi.

Bu b-n shoir mehmon borasida ziqnalik ham, isrofgarlik ham qilmaslik kerakligi, ayni paytda, zarur taom b-n siylash zarurligi haqidagi fikrni ilgari suradi

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

E.O.

BAHROMI CHO'BINA (592-y.da o'ldirilgan) – Sosoniylar davrida faoliyat ko'rsatgan lashkarboshi. N. "T.M.A." asarida u haqda ma'lumotlar bergan. N.ning yozishicha, B.Ch. Hurmuz binni No'shiravonga xizmat qilgan. Hurmuz uni Chin Xoqoniga qarshi urushga yuborgan. B.Ch. g'alaba qozonib qaytib kelgan va o'z ishi u-n in'om-u mukofot kutgan. Hurmuz esa unga ayollarning ip yigiradigan charxini yuborgan. Buning sababi a'yonlari Hurmuzga Bahromi Cho'bina haqida "U jangda juda katta boyliklarni o'lja qilib qo'lga kiritgan, lekin buni sendan yashirgan" degan edilar. G'azablangan B.Ch. isyon ko'tarib Hurmuzni yengadi. Endi Hurmuzning o'g'li Xusrav Parviz b-n B.Ch. o'rtasida kurash

boshlanadi. Xusrav Parviz Rum qaysarining yordami b-n B.Ch. ustidan g‘alaba qozonadi. B.Ch. qochib, turklar ichiga boradi va o‘sha yerda o‘ldiriladi.

Tarixchi olimlar tadqiqotlarida ham B.Ch. ning sosoniylardan No‘shiravon (531–579-yy. da taxtda o‘tirgan) va Hurmuz IV (579–590-yy. da hukmronlik qilgan) davrida lashkarboshi bo‘lgani tasdiqlanadi. N.ning B.Ch.ning isyoni haqida yozgani ham tarixiy faktlarga mosdir. Bu voqea 590-y.da yuz bergan, va B.Ch. Ktesifon shahrini egallagan. 591-y.da Xusrav Parviz Vizantiya imperatori Mavrikiy yordamida Bahromni mag‘lubiyatga uchratgan. N.ning B.Ch.ning turk xoqoni huzuriga qochib borgani va o‘sha yerda o‘ldirilgani haqidagi ma’lumotlari ham tarixiy haqiqatga xilof emas. “T.M.A.”da Bahromi Cho‘bina zikrini N. quyidagi she’r b-n yakunlaydi:

Chu Bahromi Cho‘binni baxti baland,
Jahon mulkida ayladi arjumand.
Vale oni Parviz tindurmadi,
Dam urmadi to mulkdin surmadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Пигулевская Н.В., Якубовский А.Ю., ПетрушевскийИ.П., СтроеваЛ.В., Беленицкий Л.М. История Ирана с древнейших времен до конца 18 века. – М., 1958.*

Q.E.

BAHS – so‘z tortishuv, so‘z yuritish demakdir:

Reshalar ko‘ksumda ko‘r,
Farhod bahsin qo‘ykim, ul
Qozmadi mendek balo tog‘ini tirnog‘i bila.

N. mazkur baytda Farhod haqida so‘zlashni qo‘ying, u oddiy tog‘larni qazidi, meningdek, Balo tog‘ini qazimadi. Yana tirnog‘i b-n qazimadi, deya o‘zining oshiqligi, hayoti qiyinchiliklarini izhor qiladi. B. lafzi ko‘pincha etmoq, qilmoq so‘zlari b-n qo‘shma fe’l hosil qiladi va munozara ma’nosini bildiradi.

“B.B.” devonida “B.” radifli g‘azal mavjud. 7 baytli g‘azalning maqta’si:

Nutqi jon bermak qilur ul la’li
xandon birla bahs,
Rost Isodekki qilg‘ay obi hayvon birla bahs, –

deya boshlanadi. Jon oluvchi nutq kulib turuvchi lab b-n bahs etadiki, buning sababini shoir ikkinchi baytda husni ta’lil san’ati asosida dalillaydi, ya’ni bu go‘yo Iso Masihning tiriklik suvi b-n bahs etishiga o‘xshaydi. G‘azalning har baytida shoir bahs etuvchilar, bahs etish mavzusi, shuningdek, bahs odobi haqida to‘xtaladi. 2-baytda Yor oshiqni labi b-n bahs etishga chorlaganda, oshiq “ko‘ngling jonimni oldi, jon b-n bahs qilaylik”, deya javob beradi. 3-baytda ahli donish b-n nodonlarning bahslashishi ayb ekanligi uqtiriladi. Agar jonon jonni istasa, deydi N. jon jonon b-n bahslashishi, talashishi to‘g‘ri emas. Ko‘rinadiki, N. go‘zal xulq va yuksak maqom egasi. Uning har bir baytida pand barobarida bandalik, qullik holi bor. Faqr maqomida esa neki eshitsang tan ber, orifning irfon b-n bahslashishi maqbul emas, degan fikrini ilgari suradi. Maqta’ esa gadoning sulton, qulning Alloh b-n bahslashishga haddi yo‘qligi kabi irfoniy kulminatsiya b-n yakunlanadi:

Ey Navoiy, har nechuk zulm etsa chek,
dam urmag‘il,
Kim gado haddi emas hech ishda
sulton birla bahs.

Bahslashuvchi, tortishuvchi *Bohis* deyiladi:

Sen ista fayzi fano dayr gungu lolidin,
Ki ishq darsini bilmas mujodil-u bohis.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011.*

Z.R.

BEDARD – forsiy lafz bo‘lib, mumtoz adabiyotda quyidagi ma’nolarda keladi: 1. Dardsiz, og‘riqsiz; 2. Beishq, bemuhabbat.

Irfoniy adabiyotda bedardlik qoralangan. Ishqsiz, ahli dunyo bedard deb atalgan. Zero, tariqat ahli dard so‘zini ishq ma’nosida tushunishgan. N. ham Haq yo‘lchiligining asrorini ramziy-majoziy anglatgan “L.T.” dostonida bedardlig‘ falokatidan shunday ogoh etadi:

Dard keldi ishq so‘zidin nishon,
Dard bo‘lmay oshiq o‘lmas jonfishon.

Mutribo, tuz bir surudi dardnok,
Soqiyo, bedardlig‘din men halok.

Dard jomin tut meni zor etgudek,
Ishq dardi ko‘ngluma kor etgudek.

To oni no‘sh aylabon jondin kechay,
Aql-u hush-u din-u imondin kechay.

Bu badiiy g‘oya lirik merosida ham urg‘ulangan:

Nasihat ahli, o‘lturmang damo-dam
ishq-u dard ahlin,
Demay bedardsiz, billahki, dardi bedavodursiz.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011*

Z.R.

BEDIL – o‘z ma’nosida dilsiz, ruhsiz, holsiz, qo‘rqoq. Tasavvufiy istilohda esa hasratli oshiq, mumtoz adabiyotda ishq vodiysidagi oshiq obrazini bildiradi. N. asarlarida ham aksar shu tushunchada keladi: “Ishq mulki obodlig‘i aning ashki selobidin va shavq shabistoni yorug‘lig‘i aning shu’lasi tobidinkim, ahli dillar ko‘ngli bu ishq shu’lasi nuridin va ul shu’la nuri sururidin ayrulmasunlar va riyoyi zuhd xaylig‘a qotilmasunlar.

Bayt:

Meni bedilg‘a, yo Rab, bu ko‘ngulni tutqil arzoni,
Oni mendin ayirma, dog‘i mensiz tutmag‘il oni.

N. lirikasida o‘z shaxsi va taqdiriga nisbatan ham B. sifatini qo‘llaydi:

Yo Rab, ne dey alarniki, miskin Navoiyni
Behush-u aql-u bedil-u bechora qildilar.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005. Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. Душанбе, 1987; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Т., 1983.*

Z.R.

BEDILIY (XV asr, Hirot) – shoira. Oilasida hamma shoir bo‘lib, eri Shayx Abdulloh Devona ham, o‘g‘li Shayxzoda Ansoriy ham she’r yozganlar. N. “M.N.” tazkirasida uning xushtab’ shoira ekanini ta’kidlab, ijodidan bir bayt namuna keltiradi:

Ravam ba bog‘-u zi nargisi du dida vom kunam,
Ki to nazarayi on sarvi xush xirom kunam.

Tarj.: Boqqa kiraman-u mavzun xirom etuvchi o‘shal sarvni ko‘rish u-n nargisdan bir juft ko‘z qarz olaman.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988.*

E.O.

BEKOVA Nazzora Jo‘rayevna – f.f. d-ri. “Alisher Navoiyning hamd g‘azallari vva “Ruh ul-quds” qasidasining badiiyati va manbalari” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini 2003-y.da yoqlagan. B.N.J.ning mazkur tadqiqotida hamd yo‘nalishidagi asarlarning vujudga kelishi va rivojlanish tarixi yoritilgan hamda ularning N. ijodida yuk-

sak cho‘qqiga ko‘tarilib, yaxlit bir tizimga aylanganligi asoslab berilgan. Sharq mumtoz adabiyotida ma’rifiy-badiiy hamd g‘azallarni (devonda) har harf turkumiga ko‘ra birinchi joylashtirish N. nomi b-n bog‘liq an’ana ekanligi ilmiy asoslar orqali yoritilgan.

Olima N. hamd g‘azallarining qahramonlari oddiy mo‘minlik darajasi b-n cheklanib qolmay, Haq sir-u sinoatiga yetishishga bel bog‘lagan komil inson bo‘lish ishtiyoqida “o‘zni maqsud manziliga boshlagan” tolib, Haqning ulug‘ qudrati oldida o‘zini xor-u xas kabi his qilib, “iksiri a’zam” – ishq olovida poklangan oshiq, ilmi ilohiyda barchadan bilimdon orif, faqr, Haqdan o‘zga narsaga qiziqmaydigan majzublik holatidagi g‘aniy – shariat hukmlaridan, Qur’oni Karim va Hadisi sharif asosida Alloh va uning cheksiz sifatlaridan xabardorlik, o‘zining mohiyatan shu qudrat sohibi b-n birligini payqash natijasida oddiy hukmlar ijrochisi bo‘lish b-n qanoatlanmay, ichki ruhiy hurlikka, ilmi g‘aybga ehtiyoj sezgan solik N. hamd g‘azallarining umumiy qahramoni ekanligini asoslab bergan.

B.N.J. 2021-y.da “Alisher Navoiy forsiy merosining janriy xususiyatlari va badiiyati” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Olima “Devoni Foniy”ni janrlar tarkibiga ko‘ra tahlil qilar ekan, buni o‘zbek tilidagi janrlar tizimi b-n qiyoslagan holda amalga oshirgan. Ya’ni, ularning umuman shu janrning namunasi ekanligidan tashqari, bu asarlar poetikasining o‘zbek tilidagi adabiy janrlar b-n uyg‘unlik darajasi birinchi planga olib chiqiladi. Hatto poetikaning vazn, qofiya, radif, she’r san’atlari singari asosiy unsurlari ham ko‘proq mana shu yo‘nalishda ko‘rib chiqiladi. Buning natijasida:

1) “Devoni Foniy”ning janrlar tarkibiga ko‘ra yangicha tahlili amalga oshgan;

2) ular mutafakkir adib ijodidagi o‘zbek tilida yaratilgan mazkur janrlar b-n qiyoslangan;

3) qiyoslash u-n ko‘plab fors-tojik adabiyoti namoyandalarning asarlariga murojaat etilgan.

Bularning barchasi “Alisher Navoiyning forsiy she’riyati uning o‘zbek tilidagi asarlariga qaraganda badiiyat me’yorlari pastroq” tarzidagi qarashlarga uzil-kesil barham beradi.

N.ning “R.Q.” qasidasining nasriy bayonini izoh-u lug‘atlari b-n (– T., O‘zbekiston, 2004, hammuallif R.Vohidov) nashr ettirgan. N.ning yigirma jildlik “MAT”ini nashrga tayyorlashda (N. “MAT”, 20-tom, – T., 2003) ham o‘z hissasini qo‘shgan.

“Alisher Navoiy she’riyatida hamd poetikasi”, “Navoiyona hassoslik”, “Navoiyni anglash hayrati”, “Alisher Navoiy fardlari poetikasi”, “Alisher Navoiy muxtara’ g‘azallarining badiiyati”, “Alisher Navoiy forsiy merosining janriy xususiyatlari va badiiyati” kabi monografiyalarida adabiy manbalarni tahlil qilar ekan, N. yashagan davr xususiyati, adabiy muhit va adabiy hayot, an’ana, uslubiy o‘ziga xoslik kabi masalalar ustida mulohaza yuritib, muhim fikrlarni aytgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Девони Фоний. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Бекова Н.Ж. Алишер Навоийнинг ҳамд ғазаллари ва “Руҳ ул-қудс” қасидасининг бадиияти ва манбалари. Автореферат. – Т., 2003; Бекова Н. Алишер Навоий шеъриятида ҳамд поэтикаси. Монография. – Т., 2006; Бекова Н. Навоиёна ҳассослик. Монография. – Т., 2007; Бекова Н. Навоийни англаш ҳайрати. Монография. – Т., 2012; Бекова Н. Алишер Навоий фардлари поэтикаси. Рисола. – Т., 2017; Бекова Н. Алишер Навоий мухтараъ ғазалларининг бадиияти. – Т., 2021; Бекова Н. Алишер Навоий форсий меросининг жанрий хусусиятлари ва бадиияти. Автореферат. – С., 2021; Бекова Н. Алишер Навоий форсий меросининг жанрий хусусиятлари ва бадиияти. Монография. – Т., 2022.*

M.A.

BEL – solikning vujudi. B. komil insonning fikr-u taxayyuliga ham ishora qiladi. Qilday (ingichka) B. – mushohadaning nozik va teranligini tamsil etadi. N. buni shunday ifoda etadi:

Nozuklugidin erkin, yo men hasudmen,
Bukim aning belin ko‘ra olmon kamar bila.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва табъироти ирфоний. – Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.); Абдуқодиров А. Тасаввуф истилоҳларининг қисқача изоҳли луғати. 2-китоб. – Хўжанд, 2002.*

E.O.

BELEN Fransua-Alfons (1817–1889) – n.shunos olim. 1795-y.da Parijda tashkil etilgan “Sharq jonli tillari maktabi” davomchisi. S.De Sasi va E. Katremerdan fors, arab va turk tillarini o‘rgangan. Qirol saroyi tarjimon-sekretari (1838–1843), Fransiyaning Qohiradagi elchixonasida (1846-y.dan), 1852-y.dan Konstantinopoldagi elchixonada tarjimon-sekretar, 1868 y.dan umrining oxirigacha shu elchixonada bosh konsul bo‘lib ishlagan. 1861-y. B.F.A.ning “Mir Alisher Navoiyning hayoti va ijodidan lavhalar” nomli asari “Osiyo jurnali” (“Jurnal aziatik”)ning fevral-mart va aprel-may sonlarida bosilib chiqdi. Tadqiqot ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismida shoir hayoti va ijodi haqida ma’lumotlar, ikkinchi qismida uning ijodidan namunalar tarjima va izohlar b-n berilgan.

1866-y. “Osiyo jurnali”ning XVII tomida B.F.A.ning “Sharq donolari” turkumida “Mir Alisher Navoiyning fazilatlari, estetik va falsafiy qarashlari” degan ikkinchi tadqiqoti e’lon qilingan. 1872-y.da esa B.F.A. turk olimi Ahmad Vofiq b-n hamkorlikda “M.Q.” matnni nashr ettirdi. Bu ishlarning hammasi Yevropaga N.ni va uning ijodini tanishtirishda muhim rol o‘ynadi. A.K. Borovkov va Y.E.Bertels B.F.A.ning N.ning fors-tojik adabiyoti klassiklarining taqlidchisi va tarjimoni, degan fikrini to‘g‘ri tanqid qilganlar.

Ad.: *Муҳаммаджон Холбеков. Франсуа Белен – навоийшунос олим. Қаранг: Гулистон жилдлик, 1987.*

Ab.H.

BELENITSKIY Aleksandr Markovich (1904–1993, Pskov) – sharqshunos, arxeolog, tarix fanlari d-ri, Tojikistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, Rudakiy mukofoti sovrindori. B.A.M.ning asosiy faoliyati urushdan so‘ng boshlangan. Olim A.Y.Yakubovskiy rahbarligida Tojikistonda So‘g‘d-tojik ekspeditsiyasining arxeologik izlanishlarida jonbozlik ko‘rsatgan. Ko‘hna madaniyat izlarini, osori-atiqalarni o‘rganish, kuzatishlar natijasida 80 dan ortiq ilmiy maqolalar e’lon qilgan va o‘z faoliyati davomida ko‘plab shogirdlar tayyorlagan. Shuningdek, Beruniyning “Mineralogiya” asarini arab tilidan rus tiliga tarjima qilgan. Aytish joizki, tarix, arxeologiya, adabiyot tarixi sohalarida B.A.ning ilmiy kuzatishlari katta ilmiy qimmatga ega.

N. haqidagi fikrlarini olim o‘zining 1946-y.da e’lon qilgan “Topografiya Gerata XV veka” nomli maqolasida bildirgan. Mazkur shahar tarixini yoritishda olim ko‘pgina yozma adabiyotlarga asoslangan. B.A.M. Hirotni XV asrdagi Xurosonning poytaxti sifatida e’tirof qilib, Temuriylar saltanatida katta ahamiyatga ega bo‘lgan joy tarzida o‘rgangan. Olim o‘z maqolasida mazkur shahar dastlab Chingizxon qo‘shinlari tomonidan vayron qilinib, so‘ng hunarmandlar tomonidan qayta tiklangani xususida yozgan. Uning ma’lumot berishicha, Hirot keyinchalik Sharqning eng yirik markazlardan biriga aylangan. Maqolada Hirot tarixiga oid qimmatli faktlarni keltirgan olim, nafaqat mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy, balki madaniy hayotni ham yoritishga muvaffaq bo‘lgan. B.A.M. ko‘pgina hamkasblarining fikriga tayanib, N.ning Husayn Boyqaro saroyi va mamlakat hayotida tutgan muhim o‘rniga to‘xtalgan. Bunda o‘z davrining yetuk arboblaridan bo‘lgan shoirning insonparvarlik faoliyati, ilg‘or qarashlari, xalq orasidagi obro‘-e’tibori ham B.A.M.ning nazaridan chetda qolmagan. Mazkur maqolani yozishda, ayniqsa, N. shaxsiyati haqidagi ma’lumotlarni keltirishda B.A.M., M.Nikitskiy, Y.E.Bertels, V.Bartold, M. Levin, E.Bloshe, G.Bongrad A.Borovkov singari qator sharqshunos olimlarning ilmiy tadqiqotlariga asoslangan.

Ad.: *Беленицкий А.М. Ист. Топография Герата XB в // Алишер Навои. – М-Л., 1946; Беленицкий А.М. // Уз СЕ Т. 2. – Т., 1972.*

Sh.R.

BEMAKONLIK (makonsizlik) – falsafiy-diniy tushuncha. N. asarlarida ham uchraydi. N. undan Yaratganning sifatlaridan birini talqin qilishda foydalangan. Aqida kitoblarida Allohning boshqa sifatlari qatorida uning hamma yerda hamisha hozir va nozirligi aytiladi, ya'ni unga makon va zamon tushunchalarining daxli yo'q, uni biron-bir makon yoki zamon b-n chegaralab bo'lmaydi. Uning bu sifatini N. ham "S.M."da qayd etgan:

Ne javhar, ne arazdur, ne makonda,
Ne voqe'dur jihatda, ne zamonda.

Shuningdek, N. bemakonlik tushunchasini Muhammad (s.a.v.)ning me'roj vaqtida yetishgan maqomiga nisbatan ham qo'llagan. "F.Sh." dostonining me'roj tuniga bag'ishlangan bobida quyidagi misralar bitilgan:

Makoni bo'lmayin juz bemakonlik,
Nishoni qolmayin juz benishonliq.
Chu qolmay ne nishoni, ne makoni
Topib maqsad makonidin nishoni.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Сирож ул-муслимин. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Сўфи Оллоёр. Маслак ул-муттақин. – Т., 2012.*

Q.E.

BENISHONLIK (nishonsizlik) – falsafiy-diniy tushuncha. N. undan Yaratganning munazzahlik sifatini ta'kidlash u-n foydalangan. Aqida kitoblarida Alloh zotining munazzahligi, ya'ni unga jismni, jasadni yoki qo'l, oyoq, ko'z singari a'zolarni hamda ko'z b-n ilg'ash mumkin bo'lgan boshqa belgilarni (nishonlarni) nisbat berib bo'lmasligi, agar nisbat berilsa, gunoh bo'lishi, bundan saqlanish lozimligi aytiladi. Jumladan, So'fi Olloyor shunday yozgan :

Tilingni saqla mundoq qavli baddin,
Ki Xudoyim munazzahdur jasaddin.

Badiiy adabiyotda, shu jumladan, N. asarlarida uchraydigan "benishonlik" (nishonsizlik) tushunchasi yuqoridagi aqida b-n bog'liq bo'lib, Yaratganning zotiga xos munazzahlikni ta'kidlash maqsadida qo'llanadi. "F.Sh." dostonida xuddi shu holni ko'ramiz. Bundan tashqari N. Muhammad (s.a.v.)ning me'rojda ko'tarilgan vaqtda etishgan maqomini ham "benishonlik", "bemakonlik" tushunchalari vositasida ta'riflaydi

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Сирож ул-муслимин. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Сўфи Оллаёр. Сабот ул-ожизин. – Т., 2009.*

Q.E.

BERYOZIN Ilya Nikolayevich (1818–1896) – rossiyalik sharqshunos, turkolog, tarixchi, eronshunos, mo'g'ulshunos olim. Qozon universitetini tamomlagan (1837), shu universitetda magistrlik (1841), Sankt-Peterburg universitetida doktorlik dissertatsiyasini (1864) yoqlagan. Arab, fors, turk, tatar tillarini mukammal o'rgangan. Qozon (1846–1855), Sankt-Peterburg universitetlari (1855–1896) prof.i, Parijdagi Osiyo jamiyati a'zosi (1849). Turk tili, fors tili grammatikasi, sayohatnomalari, turk maqollari, xonliklar yorlig'i kabi ko'plab mavzulardagi yigirmaga yaqin kitoblari rus va fransuz tillarida chop etilgan. 2 jildlik "Sharq tarixchilari kutubxonasi"ga (1850-1851) Rashididdinning "Jome' ut-tavorix" va Muhammad Solihning "Shayboniynoma" asarini tarjima va izohlari b-n kiritadi. 1846–1850-yy. davomida e'lon qilib borgan "Sankt-Peterburg kutubxonasidagi turk-tatar qo'lyozmalari tavsifi" (1847, 34-43) nomli maqolasida Saltikov-Shchedrin kutubxonasidagi "Abushqa" qo'lyozmasini tavsiflaydi. B.I.N. o'zi tahrir qilib nashrga tayyorlagan 16 tomlik (1872–1879) "Rus qomusiy lug'ati"da N. haqida qisqacha ma'lumot

berib o‘tadi: “Alisher yoki Mir Alisher, eng yaxshi chig‘atoy adibi va davlat arboblaridan biri (1500). Mir Alisherning yozuvchi sifatida asosiy fazilati shundaki, chig‘atoy yoki sharqiy-turkiy tiliga yangidan ishlov berdi, uning ko‘p sonli asarlari shu tilda bitilgan” (1873, 1-jild, 522 bet). Olim turkiy tilli xalqlar adabiyotini to‘plab, “Turkiy xrestomatiya” (1857) tuzadi va unga N.ning bir qancha asarlarini kiritadi. Jumladan, “M.N.”ning Sankt-Peterburg FA Osiyo muzeyidagi va xalq kutubxonasidagi ikki qo‘lyozmasi asosida uchinchi majlisdan eski o‘zbek yozuvida parcha beradi, izohlarda har ikki qo‘lyozmada yo‘q o‘rinlarni qayd etib boradi (146-161 bet). Davomidan asar nomini “Vaqfiyat” deb ko‘rsatib, “*Yana ul erdimkim, ul hazratning davlatidin bovujudi ulkim, jamin tana’umoti jismoiy va murodoti nafsoniyg‘aki”* deb boshlanuvchi qismidan boshlaydi (162-166 bet). “Xam.M.” (167-179), “M.” (180-201), “M.L.”dan parcha beriladi (202-225). O‘rtada Bobur asaridan parcha berib, yana N.ning beshligi: “Maxzan ul-asror”dan parcha sarlavhasi b-n *“Ey sharaf ichra ikki olamg‘a toj, Yetti falak masnadungga, bir davoj”* misralari boshlanuchi matn beriladi (273-287). Mazkur parcha Nizomiy “Maxzan ul-asror”ining Haydar Xorazmiy “Gulshan ul-asror” nomi b-n qilgan she’riy tarjimasidan olingan. Qizig‘i, parcha davomidan yana N. beshligi “Maxzan ul-asror”dan parcha deb boshlanib, “H.A.”ning 8-maqolati nasriy sarlavhasi va *“Charx to‘quz durjiki zarkor erur, Javfida yuz ming duri shahvor erur”* misralari b-n boshlangan matndan parcha beradi (288-317). Davomidan “Sabot ul-ojizin”dan, Boqirg‘oniy, Mashrab ijodidan, so‘ng N. g‘azallari va ruboiylaridan namuna berilgan (340-375). Kitobda kattagina qism N. asarlariga ajratilgan. Umuman, Beryozin turkiy adabiyot namunalarini eski o‘zbek yozuvida berish u-n oldin ularni sinchiklab o‘rgangan, qaysi joylaridan parcha olishni reja qilgan. Shu ma’noda N. asarlarining eski o‘zbek yozuvida ko‘chirilib, majmua holatida nashr qilinishi hali O‘zbekistonda toshbosma nashrlar kamyob bir paytda bajarilgan qiymatli ish edi.

Ad.: *Алишер Навоий. Вақфия. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Описание турецко-татарских рукописей, хранящихся в библиотеках С. – Петербурга: Ст. [1]-4 / [Испр. должн. э. орд. проф. Казан. ун-та И. Березин]. – Санкт-Петербург, 1846-1850; Березин И. Турецкая хрестоматия. Том I. Отделение джагатайское или восточное. – Казань, 1857.*

G.X.

BERTA DAVIDOVA (20.12.1922 – 1.08.2007) – “O‘zbekiston xalq artisti”, “El-yurt hurmati” ordeni sohibasi. B.D. 1943-y.dan O‘zbekiston Radioeshittirish qo‘mitasi huzuridagi xorda va 1945-y.dan o‘zbek ansamblida ashulachi, 1960-y.dan esa Radioeshittirish va televideniye Davlat qo‘mitasining Maqomchilar ansamblida uzoq yillar yetakchi xonanda bo‘lib ishlagan.

Xonanda ijrosida “Munojot”, “Bayot II”, “Bayot V”, “Nasri bayot”, “Talqini bayot”, “Taronai bayot”, “Samarqand ushshog‘i”, “Fig‘on”, “Dugoh”, “Xayolim senda”, “Yor armug‘oni”, “Dilnavozim”, “Gulistonim mening”, “Baxt”, “Kuylagayman”, “Yodimdasiz” kabi mumtoz va zamonaviy ashulalar o‘zining lirik-dramatik ifodasini topdi va san’at ixlosmandlari qalb qo‘ridan mustahkam o‘rin oldi. N. she’rlari asosida bitilgan qo‘shiqlari nozik didli qo‘shiq shaydolarini o‘ziga rom etgan. Mumtoz musiqamizning asosi bo‘lgan maqom qo‘shiqlarining gullab-yashnashida xonanda sifatida B.D.ning ham xizmati kattadir.

1945-y.da Yunus Rajabiy B.D.ga “Munojot”-ni o‘rgatgan.

N.ning “Kecha kelgumdir debon ul sarvi gulro‘ kelmadi” satri b-n boshlanuvchi g‘azali ilk bor B.D. tomonidan ijro etilgan.

Ad.: *ЎзМЭ. 1-жилд. – Т., 2002.*

B.R.



BERTELS Yevgeniy Eduardovich (1890–1957) – eronshunos, turkolog, n.shunos. B.Y.E. rus adabiyotshunosligida o‘zbek mumtoz adabiyotini jiddiy o‘rgangan sharqshunoslardan biridir. Olim mumtoz adabiyotimizning Ahmad Yugnakiy, Yusuf Xos Hojib, N. kabi vakillari ijodini o‘rganish, tahlil etish barobarida ularning ilmiy biografiyalarini ham yaratishga muvaffaq bo‘ldi.

B.Y.E.ning o‘zbek mumtoz adabiyotiga doir ilmiy merosida, asosan, qiyosiy-tarixiy adabiyotshunoslik masalalari yetakchilik qildi, turli xalqlar adabiyotlarini qiyosiy o‘rganish uning ijodida asosiy o‘rin egalladi.

N. ijodini o‘rganishga B.Y.E. XX asrning 20-yy.idan kirishgan. “X.” asarining eng qadimgi qo‘lyozma nusxasi ham B.Y.E. sa’y-harakati b-n topilgan, fan u-n asrab qolingan. Uning komparativistik yo‘nalishdagi ilmiy merosida kompleks filologik tahlil, ya’ni asar janrini belgilash, matn qurilishini tavsiflash, asar umumiy ruhining makon va zamonga aloqadorligi, obrazlar sistemasi va semantikasini aniqlash, asarning jahoniy darajasini qiyosiy yo‘sinda belgilash, matnning estetik ahamiyatini ochib berish kabi jarayonlar amalga oshirilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Бертельс Е.Э. Наваи и Аттар // Сб Мир Алишер Л.1928; Бертельс Е.Э. Древнейшая рукопись Пяти поэм. Алишера Навои // Избранные труды. Наваи и Джами; Навои и литература Востока // Дружба народов. – М., 1941; Роман об Александре и его главные версии на востоке. – М–Л., 1949; Навои и Низами // Сборник Алишер Наваи. – М.–Л., 1946; Избранные труды Навои и Джами. – М., 1965.*

G.X.

BEXUD – hushsiz, o‘zidan ketgan. B. tazkiralarda valiylarda kechadigan ma’naviy bir hol, she’riyatda lirik qahramonning ichki kechinmalarini, ruhiy holatini ko‘rsatuvchi holatdir. “N.M.”da B.likning oqibatlari tasviri shunday beriladi: “Shayx Abbos Faqir debdurki, Sherozda Shayx Abulhasan Solbih xonaqosida erdikim, ul keldi g‘arib hol bila. Taajjub qilib, qo‘pub, ta’zim qilib, yonig‘a o‘lturtdi. Hayrat va bexudlug‘i ul martabada erdikim, ko‘zi ichinda arz hasharotidin bir ushoqroq jonvor boradur erdi. Shayx dedi: ul nedurki, ko‘zungda boradur? Shayx Imron dedi: “ko‘zimda biror narsa bormi?” Tazkiralarda valiylarning tariqatga kirishiga sabab bo‘luvchi biror voqea sodir bo‘ladi. Ya’ni yo‘l boshida tavbaga kelish, nafs tarbiyasiga kirishishdan oldin biror voqelik ta’sirida bexud bo‘ladi. Shu bois solik hayotidagi ma’naviy hollarning ibtidosi o‘laroq B. bo‘lishga alohida e’tibor qaratiladi: “Ey xojasidan g‘ofil qolganlar, behisob mukofotlar berib, katta gunohlaringizni ham mag‘firat qiluvchi saxovatli zot – Parvardigoringizga qayting, shoshiling!”. Chun men bularni eshittim va ko‘rdum, bexud bo‘ldum. Chun o‘zumga keldim, dunyo-yu mofihoning muhabbati ko‘nglumdin chiqib erdi. Tong erta bo‘lg‘ach, Tengri bila ahd qildimki, o‘zumni bir pirga taslim qilay, to manga Tengri yo‘lin ko‘rguzsun!”

Aslida bexudlik ishq va mushohadaning kuchidan yuzaga keladi. “Ishq ulug‘lik kigiziga oyog‘ini tirab oldi, avvalo, bizdan bizning borlig‘imizni ketkazdi. Sizu bizga naqd bexudlik munosibdur, chunki siz-u bizning zahmatlarimiz unga sig‘maydi”, – deya N. bexudlik imtiyozini valiylar tilidan tushuntirsa, lirikasida oshiqlik holini ifoda etadi:

Soqiyo, holimni bilding, emdi tutqil bodakim,
Bu suubatlarni bexudlug‘ manga oson qilur.

Yoki:

Nolani har nechakim eldin nihon aylar ko‘ngul,
Seni sog‘ing‘och, yana bexud fig‘on aylar ko‘ngul.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005. Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. – Душанбе, 1987.*

Z.R.

BESHAYI NIGOR – "S.I." dostonida tasvirlangan besha, o‘rmon. Dostonning qirq uchinchi bobida hikoya qilinishicha, Iskandar Hindistonga kirib borganda Hind Royi (Hindiston hukmdori) unga qarshiliksiz taslim bo‘lgan va uning hokimiyatini tan olgan. Bunga javoban Iskandar ham Royga katta iltifotlar ko‘rsatgan va uning xalqini moli omon va ikki yillik xirojni to‘lashdan ozod qilgan. Shundan so‘ng Roy Iskandar u-n mehmondorchilik tashkil qilgan. U Iskandarni mamlakatning poytaxti Dehlida mehmon qilmoqchi bo‘lgan, lekin Iskandar buni rad etadi, chunki agar u son-sanoqsiz lashkari b-n Dehliga kirsa, shahar ahli bundan aziyat chekishi mumkin edi. Shu sababli u Royga mehmondorchilikni biron-bir ovloqroq joyda o‘tkazish lozimligini aytadi va Hind Royi buning u-n B.N.ni tanlaydi. Besha Hindistondagi katta o‘rmon bo‘lib, o‘zining go‘zal tabiati, noyob hayvonot va o‘simliklar dunyosi b-n mashhur edi. Dostonda B.N.ning juda go‘zal badiiy tasviri berilgan. Bu tasvir o‘quvchi ko‘z oldida besha – o‘rmon, to‘qayni emas, jannatdek go‘zal bir ma’voni gavdalantiradi. Shoir uni Bog‘i Eramga qiyoslaydi:

Ne Besha, Eram Bog‘ining g‘ayrati,
Xirad nutqini lol etib hayrati.

Muallif B.N.ni tasvirlar ekan, u yerdagi daraxtlar, qushlar, hayvonlarga to‘xtaladi, chunonchi bobda Hindistonda o‘sadigan obnus, sandal, javzi bo‘yo, noju daraxtlari, tovus, durroj, tazarv, shorak, to‘ti kabi jonivorlar tasviri va ta’rifi berilganini ko‘ramizki, bular N.ning Hindiston tabiati, o‘simliklar va hayvonot dunyosi haqida yaxshi tasavvurga ega ekanini ko‘rsatadi, ayni paytda mazkur o‘rinlardagi tasvirning hayotiyligi va jonliligini ta’minlaydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 2002.*

Q.E.

BIBICHA MUNAJJIMA (XV asr, Kirmon – Hirot) – shoira, olima. Mavlono Alouddin Kirmoniyning singlisi. O‘z davrining barcha ilmlarini egallab, darveshlikka mayli kuchli bo‘lganidan sulton-u amirlar uni nihoyatda qadrlaganlar. U esa bu hurmat-u e’tiborning barchasiga etak silkigancha bir masjidi jome’ bunyod etib, bor mol-mulkini unga vaqf qilgan.

N. "N.M." tazkirasida ushbu shoira va orifa ayol haqida quyidagilarni yozgan: "Kirmon mulkidindur. Mazkur bo‘lg‘on ilmda o‘z zamonining saromadi erdi, ammo mayli darveshlik sari erdi. Zamon podshohi iltifot va ta’zim ko‘p qilur erdi va podshoh haramlari uzmo xavotin bag‘oyat hurmat tutarlar erdi. Oqibat barchaning ixtilotin tark qilib, xiyobon boshida o‘z manzili javorida masjidi yasadi va mulki asbobin anga vaqf qildi, andoqkim, holo ravnaqi bor va kasir xaloyiq anda namoz qilurlar. Va anda o‘ziga go‘rxona yasadi... yoshda olamdin o‘tti. Va maqbarasi o‘z go‘rxonasidadir". Bibi Munajjimani N. "M.N."-ning 6-majlisida ham o‘z ismi b-n eslatadi, ya’ni "Xoja Alouddin – Kirmon mulkidin. Xoja Afzaliddin Muhammadqa qarobatdur va Bibicha Munajjimaning inisidur".

Tazkiralarda B.M. Jomiyga alohida e’tiqod va tavajjuh b-n qaraganini qayd qilishadi. Ba’zi rivoyatlarga ko‘ra, Jomiy kelib namoz o‘qib turar, degan maqsadda o‘z uyiga yaqin joyda masjid qurdiradi. Lekin Jomiy bu yerga namoz o‘qishga bormaydi, bir she’r yozib, mehrobga osib qo‘yadi. B.M. ana shu she’rga nihoyatda keskin javob yozgan ekan. Tasavvufda baland maqomga erishgan. Sulton Husayn mirzo va uning xotinlari unga katta hurmat ko‘rsatganlar.

Ilmiy asarlari bizgacha yetib kelmagan. Tab’i nazmidan ba’zi parchalar esa turli tazkiralardan o‘rin olgan. Uning zamondoshi bo‘lgan Hakim Muhammadshoh Qazviniy ma’lumot berishicha, B.M.ning fazilatlari chek-chegarani bilmay, taq-

vimni aniqlashda tengsiz edi. Moh taxallusi b-n badiiy yetuk she'rlar ham yozgan. Jumladan, quyidagi bayt uning qalamiga mansub:

Gar na har dam zi sari ko'i tuam ashk barad,
Oshiqiho kunam on jo, ki falak rashk barad.

Tarj.: Ko'z yoshlarim hamisha ham sening ko'yingga yo'l bermasa-da, shunday oshiqliklar qilayki, ko'rib falakning ko'zi kuysin!

Mana bu bayt esa erining vafoti munosabati b-n yozgan g'azalidandir:

Kavkabi baxtam, ki bud az vay munavvar osmon,
Bingar, ey moh, k-az firoqat dar zamin ast in zamon.

Tarj.: Ey oy, osmonni munavvar qilgan baxtim yulduziga qara – sening firoqingda u bugun yerda yotibdi.

N. "N.M." tazkirasini B.M. zikri b-n nihoyasiga yetkazadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Фахри Ҳиротий. Жавоҳир ул-ажойиб. – Хўжанд, 2007; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988; Эргашев Қ. Некоторые аспекты государственной деятельности Алишера Навои. – Т., 2009.*

B.R., E.O.

BIYOBON – ovoralik va hayrat maqomi. Hayrat maqomi fano maqomidan oldin keladi. B. – hayrat maqomining ilk ko'rinishi. Cheksiz anduh va azob ma'nosida ham keladi. N. ijodida B. istilohi turli ma'no qirralari b-n namoyon bo'ladi. M-n, bir baytida mubolag'a san'atini haddi a'losiga yetkazib, sen bu B.ni bosib o'tishni oson deb tasavvur qilgan eding, holbuki, har bir manzilda ko'z yoshlaringdan yuz buloq hosil bo'ldi, deb yozsa:

Ey Navoiy, bu biyobon qat'in oson aylading,
Ashkdin mundoqki har manzilda
chekting yuz buloq, –

boshqasida ishq B.larini bosib o'tib, yo'qlik mamlakatidan narida ming bir xavf-xatarga duch kelganini aytadi:

Chu dardi ishq biyobonlarini qildim qat',
Adam viloyatidin nari yuz xatar toptim.

Ad.: *Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва таъбироти ирфоний. – Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.); Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005; Абдуллаев А. Тасаввуф ва унинг намояндалари. – Т., 2009.*

E.O.

BILGUT – turkiy (chig'atoy) urug'lardan birining nomi. N.ning asarlarida, xususan, "Chor devon"ida o'zbek xalqining 50 dan ortiq urug' nomlari tilga olingan, o'sha davrdagi o'zbek urug'larining ijtimoiy holati, siyosiy mavqeyi haqida ham batafsil ma'lumotlar yozilgan: Jumladan, B. atamasi shoirning "N.Sh.", "F.K." devonlarida uchraydi.

Ey Navoiy, meni zor ayladi
bir lo'livash,
Kim, arlot unut bo'ldi manga,
ham bilgut.

Lirik qahramon – oshiqning bir lo'livash mahbubaga bo'lgan ishqi shu qadar kuchliki, unga boshqa barcha-barchani, urug'-qabilalar orasida husn-u jamolda tengsizligi b-n shuhrat qozongan arlot, bilgut qizlarini ham unuttirdi. Ko'rinadiki, N. xalq orasida ko'p bo'lgan, aksar o'zbek urug'larining nomlarini, muayyan elatlarning ijtimoiy mavqeyi, ko'rinishi, yurish-turishini yaxshi bilgan. Shu jihatdan, N. asarlari o'rta asrlardagi turkiy xalqlarning etnografiyasi, madaniyati haqida yorqin tasavvur beruvchi beqiyos adabiy manbadir.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Абулғози Баҳодирхон. Шажарайи турк. – Т., 1992.*

S.O'.

BILOL (XV asr) – shoir. N. “M.N.”da B. yaxshi suhbatdosh va shirinso‘z kishi bo‘lgan, deb yozadi. B. Hirotda vafot etgan va N. ma’lumoticha, qabri Xojayi Toq go‘ristonida ekan. B. forsiy va turkiyda yaxshi she’rlar bitgan. N. B.ning quyidagi turkiy matla’sini keltiradi:

Jon-u ko‘nglumni jafo o‘ti bila kuydurdingiz,
O‘ylakim, kul bo‘ldum-u mendin ko‘ngul
tindurdingiz.

Ad.: Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.

S.G‘.

BILOL Nozim (1824, G‘ulja – v.y.n., Yorkent) – taniqli uyg‘ur shoiri. Boshlang‘ich ma’lumotni oilada – otasi Mulla Yusuf qo‘lida oladi. Keyin G‘ulja madrasalarida tahsilini kamolga yetkazadi. Adabiyotga qiziqishi tufayli yoshligidan Nizomiy, Jomiy, N., Mashrab, Amiriy asarlarini sevib mutolaa qiladi. Xususan, Jomiyni ijod yo‘lida o‘ziga ustoz deb biladi.

U og‘ir davrda yashab ijod qiladi. Xitoyning hukmron doiralari va mahalliy amaldorlar zulmiga qarshi XIX asr davomida Sinszyanda 7 marta xalq qo‘zg‘olonlari bo‘lib o‘tadi. B.N. ham akasi Jalol b-n birga qo‘liga qurol olib, xalq tomonida turib jang qiladi.

70 yildan ziyod umr ko‘rgan shoir ijod namunalarini yig‘ib, devon tuzgan. Uning “G‘azaliyot” deb atalgan devoni ko‘plab nusxalarda ko‘chirilib, keng tarqalgan va katta shuhrat qozongan. “Nozugum qissasi”, “Kulohli Yusupxon”, “G‘azot dar mulki Chin” (“Xitoy mulkida g‘azot”) kabi dostonlarida xalqning o‘z ozodligi u-n kurash g‘oyalari keng badiiy talqinini topgan. “G‘azot dar mulki Chin” dostonida N. nomini qayta-qayta hurmat va ehtirom b-n tilga oladi.

N. ijodidan ilhomlanib, B.N. ko‘plab g‘azallar va baytlar ijod qilgan. Jumladan, u ulug‘ shoirning “Manga”, “Judo”, “Tut”, “Yigit”, “Mubtalo” radifli g‘azallariga tatabbu’ qiladi. Lekin xalaf shoir tatabbu’lari salaf shoir g‘azallariga shunchaki taqlid bo‘lmay, u tatabbu’ bahona o‘ziga xos ohorli g‘azallar yaratadi. M-n, “Judo” radifli g‘azaliga tatabbu’sida vazn va radifni aynan saqlasa-da, qofiya tartibini yangilaydi. Mazmunda mushtarak jihatlar b-n birga o‘ziga xoslik ham yorqin namoyon bo‘ladi:

N.:

Ne navo soz aylagay bulbul gulistondin judo,
Aylamas to‘ti takallum shakkaristondin judo.

B.N.:

Oh, naylay, bu falak qildi nigorimdin judo,
Andalib yanglig‘ bo‘lubmen gul’uzorimdin judo.

“Yigit” radifli g‘azaliga tatabbu’si ham xuddi shunday o‘ziga xosligi b-n ajralib turadi:

N.:

Ko‘nglum oldi bir paripaykar malaksiymo yigit –
Kim, bani odamda andoq bo‘lmamish paydo yigit.

B.N.:

Ohkim, ko‘nglumni oldi bir malohatlik yigit,
O‘ynatib timqora tulpor ul kamolatlik yigit.

B.N.ning:

Yosh bolalar ta’qib aylar dardi hajringda sening,
Tosh otur ortimdin aylarga izo birla jafo, –

bayti “L.M.” dostonidagi Qaysning ortidan bolalarning “Majnun!”, “Majnun!” – deb chopganlari lavhasini esga soladi.

Ko‘nglum qushini band etib yor tuzog‘iga,
Bergil yana ishq-u muhabbat shumorsiz, –

bayti esa otasi ishqi dardiga davo topish maqsadida haj ziyoratiga olib borgan Qaysning Xudodan dardiga davo so‘rash o‘rniga Ka’bani aylanib, ko‘nglidagi Layli ishqi o‘tini yanada sarbaland etishini iltijo qilishiga o‘xshaydi.

B.N. ijodida tasavvufiy ohanglar bo‘rtib ko‘rinadi. U qator g‘azallarida majoziy va haqiqiy ishqni o‘zaro muqoyasa qiladi va haqiqiy ishqni ulug‘laydi. Shunday g‘azallaridan birida hatto ishq-u ijod yo‘lida o‘ziga rahnamo deb bilgan N. ruhidan madad so‘raydi:

Qani Hazrati Navoyi, qilsa erdilar davoyi,
Ishq o‘ti aylab adoyi, kuydurur meni bugun pok.

B.N.ning:

May qadahin sipqarur qo‘ymay Biloliy qatrasin,
Ham buzulgan ko‘nglini may birla obod aylagil, –

bayti esa N.ning mashhur:

Ey Navoiy, boda birla xurram et ko‘nglung uyin,
Ne uchunkim, boda kelgan uyga qayg‘u kelmadi,

– baytiga hamohang jaranglaydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Билол Нозим шеъриятидан. – Т., 1981.*

S.G‘., E.O., S.O‘.

BILQISI ZAMON – N. bu ibora b-n Sulton Husayn Boyqaroning suyukli xotini, davr ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida sezilarli rol o‘ynagan Xadichabegimni nazarda tutadi.

Gar Navoiyga Sulaymon mulkicha bordur, ne tong,
Buki, Bilqisi zamon nazmini tahsin aylamish.

Shuningdek, Bilqisi ahd, Bilqisi soniy sifatlari ham Xadichabegimga nisbatan ishlatilgan.

Avji davlat uzra bo‘lsun doimo Bilqisi ahd
Kim, Zuhal qasrinda har tun posbone besh emas.

... Ham Sulaymoni ahdg‘a hamdam,
Hamdam-u hamnishin-u munis ham.
Chun Sulaymong‘a yor erur, ne ajab,
Anga Bilqisi soniy o‘lsa laqab.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011.*

A.A.

BILQISI UZMO – eng ulug‘ Bilqis. N. bu ibora, shuningdek, ba‘zan “Mahdi ulyo” (oliy daraja) unvoni b-n Shohruxning katta xotini, davr ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida katta rol o‘ynagan, davlatni boshqarish ishlarida ham bevosita faol qatnashgan Gavharshodbegimni ta’riflagan: “...Ko‘prak yo‘l Injil arig‘i yoqasi bila mahdi ul’yo va Bilqisi uzmo Gavharshod og‘o... madrasasi soriqim ...”

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Зайниддин Восифий. Бадоеъ ул вақоеъ, – Т., 1979.*

A.A.

BINOIY (taxallusi; to‘liq ismi: Kamoliddin Sherali ibn Muhammad Sabz (1453, Hirot − 1512, Nasaf) − fors-tojik shoiri, xattot, muarrix va bastakor. Otasi Muhammad Sabz me’mor bo‘lganidan B. taxallusini oladi. O‘z davrining asosiy ilmlarini egallab, Jomiy va N. adabiy muhitiga yo‘l topadi. N. uning turli sohalarda qobiliyati zo‘rligini e’tirof etgani holda, biror ishni oxiriga yetkazmasligini tanqid qiladi: “Bag‘oyat qobiliyati bor. Avval tahsilg‘a mashg‘ul bo‘ldi, anda ko‘p rushdi bor erdi, bot tark qildi. Xatg‘a ishq paydo qildi. Oz fursatda obodon bitidi. Andin so‘ng ilmi musiqiyg‘a mayl ko‘rguzdi. Advor ilmi b-n bot o‘rganib, xili ishlar tasnif qilib, advorda dag‘i risola bitidi. Ammo mo‘‘jib va mutasavvirlig‘idin el ko‘nglig‘a maqbul bo‘lmadi. Bu sifati salbi u-n faqr tariyqin ixtiyor qildi va riyozatlar ham tortti, chun piri va murshidi yo‘q erdi, o‘z boshicha qilg‘on u-n hech foyda bermadi. El ta’nu tashne’idin Hiriyda turolmay Iroqqa bordi. Andin dag‘i ushbu rang ovozalar yibordi”.

N. tahsilini kamolga yetkazishi u-n moddiy va ma’naviy jihatdan B.ni hamisha qo‘llab-quv-

vatlab kelgan. U musiqa va san’atni aynan N. ning maslahati b-n o‘rganadi. B. nomi N. asarlarida tilga olingan. U haqida “M.N.”ning uchinchi majlisida ma’lumot berilgan. Unda B.ning o‘rta tabaqaga mansubligi, Hirotda tug‘ilgani aytiladi. N. uni g‘oyat kuchli qobiliyatga egaligini, xattotlik va musiqa san’atlarini o‘zlashtirganini qayd qiladi. Ayni payda u B. tabiatida salbiy xususiyatlar ham mavjudligini qayd etadi hamda ulardan xalos bo‘lishiga umid bildiradi. B.ni N. o‘zining “S.” asarida ham esga oladi. Shoir olamdan o‘tib ketgan do‘stlarini xotirlaydi va agar ular olamdan o‘tib ketgan bo‘lsa, boshqa bir guruh do‘stlari bor ekaniga shukr qiladi va ularning har birini, shu jumladan, B.ni ham tilga oladi:

Yana bir keldi Binoiyki funun
Kasbida aylamadi man’i junun.

N.ning “M.N.” va “S.”dagi so‘zlari shundan dalolat beradiki, ikki o‘rtadagi munosabatlarning murakkabligiga qaramay N.ning B.ga munosabati do‘stona va samimiyligicha qolgan.

B. sermahsul shoir bo‘lib, 3 ta devon tuzgan (biri − Homiy, ikkitasi − Binoiy taxallusi b-n). Ular qasida, g‘azal, qit’a va ruboiy janridagi she’rlarni o‘z ichiga olib, umumiy hajmi 10 ming baytdan iborat. Asarlari ichida “Behro‘z va Bahrom” dostoni (7700 bayt), “Majma’ ul-g‘aroyib” (“Ajoyib voqealar majmu’i” (uni 501 baytdan 876 baytgacha bo‘lganini rivoyat qiladilar, bizgacha 114 bayti yetib kelgan) qasidasi, “Shayboniynoma” va “Futuhoti xoniy” (“Xonning g‘alabalari”) tarixiy asarlari, ayniqsa, mashhur. U “Behro‘z va Bahrom” dostonida 32 nafar mashhur tarixiy shaxslar b-n bog‘liq rivoyatlar va ularning odob-axloqqa oid fikrlarini keltiradi. Ular orasida Jomiy va N. ham bor. “G‘azalida rang va hol bordur”, − deb Bobur uning nazmiga yuqori baho beradi. U musiqada “No‘h rang” va “Savt un-naqsh” kabi mashhur musiqalar ham yaratgan.

“Boburnoma”, “Habib us-siyar”, “Shayboniynoma” kabi asarlar tarkibida kelgan she’rlaridan B.ning o‘zbek tilida ham mahorat b-n qalam tebratgan zullisonayn shoir ekani ma’lum bo‘ladi. M-n, “Abushqa” nomli mashhur lug‘atda “umoq” so‘zining ma’nosi izohlangach, misol sifatida B.ning o‘zbek tilida yozilgan g‘azalidan quyidagi matla’si keltiriladi:

Jafoni jong‘a toloy oldingiz, ulaymu bo‘lur?
Sizning umoqda, bekach, rasmingiz
bulaymu bo‘lur?

Lekin shoirning o‘zbek tilidagi she’rlari bizgacha yetib kelmagan.

Ad.: *Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Бобурнома. – Т., 2002; Мирзоев А.М. Камал ад-Дин Бинаи. – М., 1976; Каримов У. Адабиёти тожик дар асри XVI. – Душанбе, 1985; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988; Муҳаммад Ҳайдар Мирзо. Тарихи Рашидий. (В.Раҳмонов ва Я.Эгамова тарж.). – Т., 2010; Тазкираи “Тўҳфаи Сомий”. – Теҳрон, 1347 (ҳ.-ш.); Шодиев Э. Алишер Навоий ва форс тожик адиблари. – Т., 1989.*

Q.E., E.O.

“BIR ULUSNING QALBI-YU BAD AXTARI” – “L.T.” dostoni tarkibidagi mustaqil syujetli she’riy hikoyat shu misra b-n boshlanadi. Hikoyatda boshqa shaharga borib, o‘zini zargar deb e’lon qilgan qallob shaxsning qalbaki ishlari, oddiy rangli shisha parchalarini “la’l ila yoqut” o‘rnida sotib, boylik orttirgani haqida so‘z boradi. Kunlarning birida “bir pora tosh”ni gavhar o‘rnida “yuz ming oltunga sotadi”, ammo bu aldovi tezda ochilib, qatl etiladi. Axloqiy yo‘nalishda bo‘lgan bu mo‘jaz hikoyatda N. firibgarlikni qoralaydi, hiyla-nayrang yo‘liga kirgan kishi, so‘zsiz, pand yeyishi, qattiq jazolanishi tabiiy, degan motivni ta’kidlaydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

A.A.

“BIR QALANDAR BOR EDI MAHBUTI DANG” – “L.T.” dostonidagi mustaqil syujetli she’riy hikoyatlardan biri shu misra b-n boshlanadi. Dostonning o‘z shaxsiy hayotidan mamnun personajiga ibrat sifatida Hudhud tomonidan keltirilgan bu hikoyat fojia b-n tugallansa-da, unda yumoristik ruh, mayin tabassum hukmronlik qiladi. Uning mazmuni quyidagicha: bir qalandar “subh-u shom” bang yeb, xayolot dunyosiga cho‘mardi. Kunlarning birida bir vayronada ko‘proq bang yeb qo‘yib, “sirlar olamiga sayohat qiladi”, yoqimli xayollarga beriladi. O‘zini bir go‘zal gulshanda, chiroyli qasr ichida ko‘radi. Jamshiddek taxtda o‘tirganmish, “yonida gulchehrayi xurshedvash” bo‘lib, u b-n shohona maishatda emish. Xayolida “koshonada”, aslida esa, “vayrona burchagida” shirin tuyg‘ular og‘ushida yotganida buzuq devor kovagidan bir chayon chiqib, o‘z nishini har tomon sanchib kelaveribdi. Bangi – “podshoh” xayolida yonidagi go‘zal labidan bo‘sa olayotgan lahzada boyagi chayon labiga zaharli nayzasini sanchadi:

Qichqirib qo‘pti qalandar beqaror,
Zohir aylab iztirob-u iztiror.

Ne gul-u gulshan edi, ne qasr-u taxt,
Ne yonida mahvashi feruzbaxt.

Ul xayoloti topib bori xalal,
Yeb va lekin erniga nishi ajal.

Bu hikoyat qurilishi jihatidan ham, mazmun jihatidan ham, tugunning favqulodda yechimi b-n ham xalq og‘zaki ijodidagi hajviy, ayni paytda kishini hushyor torttiradigan ertaklarni eslatadi

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Бертелъс Е.Э. Избр. труды. Суфизм и суфийская литература. изд. Наука, – М., 1965; Рустамов Э. Узбекская поэзия первой половины XV века. – М., 1963; Абдуғафуров А. Навоий ижодида сатира. – Т., 1972*.

A.A.

“BIR HOVUCH DUR” – adabiyotshunos Ergash Ochilovning N. g‘azallari va alohida baytlari sharhiga bag‘ishlangan maqolalar to‘plami (2011). To‘plam “Navoiyni anglash mashaqqati” nomli kirish so‘z b-n ochilib, unda N. asarlarini o‘qib tushunishning qiyinchiliklari, ayni jihatdan ularni sharhlashga ehtiyoj mavjudligi ilmiy asoslanib, sharh va uning turlari haqida ma’lumot beriladi. Muallifning o‘z ta’biri b-n aytganda: “Ushbu sharhlardan maqsad N.ning mazmunan teran, usluban murakkab, bir necha ma’no qatlamlariga ega, diniy va tasavvufiy timsol-u istilohlarga boy bayt-u g‘azallari mohiyatini hozirgi o‘quvchiga imkon qadar keng va chuqur yetkazib berishdan iborat”.

Ad.: *Очилов Э. Бир ҳовуч дур. – Т., 2011.*

S.O‘.

BIRLIK – Q.: Vahdat.

BIRNBAUM Eliazar (**Eleazar Birnbaum**) (1930–2019) – kanadalik sharqshunos olim. London universiteti huzuridagi Sharq va Afrika tadqiqotlari markazida (1947–1953), Angliyaning Darem universiteti (1953–1964), so‘ng AQSh Michigan universiteti Sharq qo‘lyozmalari bo‘limida ishlagan. 1964-y.dan Kanadaning Toronto universitetida turk tilidan saboq bergan va shaxsiy kutubxonasiga 200 ga yaqin nodir manbalarni to‘plagan. Faxir Iz (1911–2004) rahbarligida “Boburnoma” matnini o‘rgangan. Shimoliy Amerika va Yevropa kutubxonalaridagi arab, fors, turkiy tildagi manbalarni o‘rganib, ularning tavsifiy to‘plamlarini yaratgan. 1973-y. Tabriz, Toshkent, Kobul shaharlarida bo‘lib, N., Lutfiy asarlari qo‘lyozmalarini izlaydi va o‘rganadi. Jumladan, Tabriz Milliy kutubxonasida usmonli turk an’anasiga ko‘ra, nasx xatida yozilgan N. devoniga ko‘zi tushadi va kitob Turkiyada ko‘chirilgan degan to‘xtamga keladi. Manbani har jihatdan o‘rganib, 1976-y. Germaniyada “Usmonlilar va chig‘atoy adabiyoti. N.ning Usmonlilar imlosidagi XVI asr boshi qo‘lyozmasi” nomli maqolasini ingliz tilida e’lon qiladi. B.E.

Tabrizda N. asarlari uch qo‘lyozmasini ko‘rganini, A.Erkinov esa olim to‘rtta qo‘lyozmani tavsiflaganini aytadi. 2015-y. chop etilgan “Kanadadagi usmonli turkcha va eski o‘zbek tilidagi qo‘lyozmalar. Yig‘ma katalog” nomli qo‘lyozmalar tavsifida Lutfiy va N. qo‘lyozmalariga ham o‘rin ajratgan. Xususan, usmonli shoirlar ijodiga N. asarlarining ta’siri borasida maxsus kuzatishlari bor. “Farhod va Shirin”ning turk tiliga Lomiy tomonidan tarjima qilinishi, Lomiyning bobosi naqqosh bo‘lgani, Amir Temur tomonidan Samarqandga olib ketilgani, bir necha muddat u yerda yashagan bobosi chig‘atoy adabiyoti, madaniyatiga mehr qo‘yib, Lomiyda bu tildagi adabiyotga qiziqish uyg‘otgani aytiladi. Umuman, B.E.ning N. asarlari manbalariga doir dunyo bo‘ylab olib borgan kuzatishlari va ilmiy tadqiqotlari Yevropada shakllangan sharqshunoslik maktabi rivojiga amaliy hissa bo‘lib qo‘shildi. U Mariya Yeva Sabtelni b-n Kanadada n.shunoslikka asos soldi.

Ad.: *Eleazar Birnbaum. Ottoman Turkish and Çağatay MSS in Canada: A Union Catalogue of the Four Collections. 2015. ss. 521. Leiden: Brill (Review); Эркинов А. Элизар Бирнбаум – канадалик навоийшунос / Навоийни англаш сари. – Анқара, 2021.*

O.T.

BISOTIY SAMARQANDIY (vafoti – 1412) – forsiygo‘y shoir. Xoja Ismat Buxoriyning shogirdi. Bo‘yra to‘quvchi bo‘lgani u-n dastlab Hasiriy (bo‘yrachi) taxallusi b-n ijod qilgan. Bu uning shahar hunarmandlari toifasidan bo‘lganligidan dalolat beradi. Keyin ustozi bo‘yraning tariqat yo‘liga kirgan faqr ahlining bu dunyolik yolg‘iz bisoti ekanligidan kelib chiqib, “Bu nom ulug‘larga munosib”, – deya, Bisotiy taxallusini tavsiya etgan. Asli ismi Sirojiddin bo‘lib, Bisotiy taxallusi, Samarqandiy esa nisbasidir.

N. ham B.S.ni nozik ta’bi bor emish-u, ammo o‘zi omiy emish, deb ijodidan 2 baytni “M.N.”-da misol tariqasida keltiradi. Mana bu bayti ham yaxshi chiqqan deydi:

Az xuro‘shi chang-u daf vasli tu mexohad dilam,
Z-on ki dar har po‘ste boshad Xudoro do‘ste.

Tarj.: Chang-u doira nolasini eshitib, sening vaslingni orzu qilaman, zero, har bir terining ostida Xudoning do‘sti bor.

Dil shishavu chashmoni tu har go‘sha barandash,
Mastand, mabodo ki ba sho‘xi shikanandash.

Xalil Culton hukmronligi davrida (1405–1409) tartib bergan devoni O‘zR FA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida (inv. raqami №159 (VI) saqlanadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Давлатшоҳ Самарқандий. Тазкират уш-шуаро. – Хўжанд, 2015; Абдураҳмон Жомий. Баҳористон. – Душанбе, 2014; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988.*

E.O.

BLOSHE Edgar Gabriyel Jozef (Gabriyel Joseph Edgard Blochet) (1870–1937) – fransuz sharqshunosi. Parij Sharq tillari maktabida arab tili bo‘yicha tahsil olgan, Parij universitetini tamomlagan. Yana fors, turk va boshqa tillarni o‘rgangan. 1895–1935-yy. davomida Fransiya milliy kutubxonasining qo‘lyozmalar bo‘limida ishlagan. Faoliyati davomida kutubxonadagi arab, fors, turkiy tildagi manbalarni kataloglashtirgan. B.E.G.J.ning ilmiy faoliyati qo‘lyozmalarni kataloglashtirish; arab hamda islomga oid adabiyotlarni tarjima qilish va nashr etish; eronshunoslik yo‘nalishlarida olib borilgan. “Avesto”, mo‘g‘ul xoni O‘qtoy xon, Samarqand obidalari haqidagi tadqiqotlar muallifi, “Jome’ ut-tavorix” noshiri. “Sharl Shefer Sharq to‘plamidagi arabiy, forsiy va turkiy qo‘lyozmalar katalogi” (1900) nomli asari b-n Yevropa olimlarining N. asarlarini o‘rganishiga keng yo‘l ochib bergan. Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro” asarini fransuz tiliga tarjima qilgan (1901). U o‘zi tuz-

gan “Milliy kutubxonada saqlanayotgan turkiy qo‘lyozmalar katalogi” (“Les enluminures de manuscrit orientaux de la Bibliotheque National. Paris”, 1926)da N. asarlarining 35 ta qo‘lyozma nusxasini tavsiflaydi. Xususan, N. asarlari kulliyotini to‘liq tavsiflaydi. Fransuz n.shunosi Mark Toutantning “Taqlid obrazi sharqshunoslik ko‘zgusida” nomli maqolasida berilgan izohga ko‘ra kulliyotni “Armen ismli kishi Sharqqa xizmat safari paytida qirollik puliga sotib olgan, ammo uni Qirol kutubxonasiga topshirmasdan, o‘zida qoldirgan. Kardon 1757-y.da uning bevasida saqlanayotgan qo‘lyozmalarni musodara qilgan. Bu esa chig‘atoy shoirining to‘liq asarlari to‘plami XVIII asrning birinchi yarmidayoq Fransiyaga yetib kelganligini ko‘rsatadi”, deyiladi. M.Xolbekov ta’kidiga ko‘ra, “Edgar Bloshe ham Navoiy ijodini baholashda Belen fikriga tayanib, adibni fors-tojik adabiyotining taqlidchisi, degan to‘xtamga keladi”. B.E.G.J. N. ijodiga baho berishda Sharq adabiyotidagi an’anaviylikni e’tiborga olmaydi va bu b-n N. asarlari fors adabiyotidagi mavzular b-n bir xil, alohidalik yo‘q degan xulosaga keladi. Har holda olim Fransiya kutubxonalaridagi N. qo‘lyozmalarini tavsif qilib, ommalashtirgan olim sifatida o‘rganishga loyiq.

Ad.: *Blochet E. Les enluminures des manuscrits orientaux turcs, arabes et persans de la Bibliothèque nationale, Paris, Editions de la Gazette des Beaux-Arts, 1926; Холбеков М. Навоийни жаҳон билади // Жаҳон адабиёти, 2008, 2-сон; Холбеков М. Ўзбек-француз адабий алоқалари трихидан. // Адабий мерос. – Т., 1987.*

G.X.

BOB – 1. Eshik, darvoza. 2. Bo‘lim, qism, fasl, parcha. 3. Xusus, bora, soha, mavzu. 4. Valoyat sohibi, shayx, ishq va ma’rifat peshvosi.

Ahmad Yassaviy birinchi piri Arslon boboga nisbatan ham bob so‘zini qo‘llagan:

Yetti yoshda Arslon bobga qildim salom,
Haq Mustafo omonatin qildi in’om...

Boshqa joylarda ham mashoyix “Bob” deyilgan: “...ko‘prak akobirni Xurosonda shayx derlar va Samarqandda Xoja va Rumda bob va Hindda qozi derlar”.

Abu Jo‘lob Hujviriy mashhur boblardan birini Farg‘onada uchratganini yozadi: “Farg‘onada Sholotiq atalmish bir qishloq bordir. Unda buyuk valiylardan bo‘lgan bir zot yashardi. Unga “B.” laqabi berilgan. Chunki bu mamlakatdagi ulug‘ so‘fiy va shayxlarni xalq “Bob” (eshik) deb atashardi”.

N.ning qayd qilishicha, B. Farg‘oniy deb shuhrat taratgan bu zotning nomi Umar bo‘lgan: “Bob Farg‘oniy. Oti Umardur. Ul yerda ulug‘ mashoyixni “B.” derlar.

“Kashf ul-mahjub” sohibi (ya’ni, Hujviriy – I.H.) der emishki, ul avtod ul-arzdindur” (Yer yuzida tanilgan). Tasavvuf va tariqatga, avvalo, tavba eshigidan kirilgani u-n “Bob u’l-abvob” – eshiklarning eshigi deyilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Аҳмад Яссавий. Девони ҳикмат. – Т., 1992.*

I.H.

BOBIL (akkad tilida – Alloh darvozasi) – Iroq (Kufa yaqinida) hududida mil. av. 2 ming yillikning boshidan mil. av. 538-y.gacha mavjud bo‘lgan qadimiy davlat. Hozirgi Hilla shahri o‘rnida bo‘lgan. Mil. av. 1792–1750-yy.da – Xammurapi davrida nafaqat Mesopotamiya, balki butun Old Osiyoning yirik siyosiy, madaniy va xo‘jalik markaziga aylangan. Shundan B.ni olam

doirasining markazi hisoblaganlar. Ko‘p marta turli bosqinchilar tomonidan vayron qilinib, yana qayta tiklangan. Sharqda Buxtunnasr nomi b-n mashhur bo‘lgan Nabopalasarning o‘g‘li Navuxodonosor II (mil. av. 604–562) davrida gullab-yashnagan. Mil. av. 538-y.da B.ni forslar shohi Kir, 331-y.da Iskandar zabt etgan. 312-y. da Iskandardan keyin sarkarda Salavk qo‘l ostiga o‘tgan. B. o‘z mavqeyini shu paytdan e’tiboran yo‘qota borib, mil. II asrga kelib tarix sahnasidan uzil-kesil tushib ketgan.

Sharq muarrixlari B. shahrini Kayumarsning o‘g‘li (N.ga ko‘ra nabirasi – o‘g‘li Siyomakning farzandi) – qadimgi Eronning peshdodiylar sulolasiga mansub ikkinchi hukmdori Hushang bino qilgan, deb yozadilar. Bu haqda “T.M.A.”da o‘qiymiz: “Dag‘i ul mavzeda shahr bino qilib, otin Balx qo‘ydi. Va Sus bila Bobil shahrini Hushang yasadi. Va ba’zi Kufani ham anga mansub qilibdurlar”. Uni Qaynan ibn Anush ibn Shis (a.s.) bino qilgan ham deyishadi. Qadimgi Eronning peshdodiylar sulolasiga mansub Tahmurasp uni yangidan qurgan. Namrud va Zahhok uni poytaxt qilganlar. Zahhok bu yerda bir qal’a qurgan. Qunduz va Bihishtang otlig‘. Keyin Kan’on shohlariga poytaxt bo‘lgan. Shundan so‘ng xarob bo‘lib, Iskandar uni qayta qurgan. Shahar qal’asi bo‘lgan tepalik boshida chuqur bir choh bo‘lib, Horut va Morut otlig‘ farishtalar u yerda mahbus deydilar.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2-жилд. – Т., 2001; Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. – Душанбе, 1987; Бурҳони қотеъ. Жилд 1. – Душанбе, 1993.*

E.O.

BOBO – Tasavvuf tarixi, uning buyuk vakillari hayoti va so‘fiyona she’riyat obrazlaridan murshid obrazi mohiyatini ochuvchi, eng ko‘p qo‘llaniladigan, turkiy xalqlar ruhiyatiga ham juda mos istiloh bu – *bobo, ota* kalimasidir. Boshqa turkiy xalqlar singari o‘zbeklar ham shayxlariga bobo, ota deya murojaat etishgan: Zangi ota, Qo‘yliq ota, Bahouddin bobo va h.k. Tasavvufshunos S.Uludog‘ning izohlashicha: “Bobolik ikki xildir: jismoniy bobolik – nasl-nasab boboligi, ruhoniy bobolik – insonni ma’nan va ruhan yuksaltiruvchi shaxs. Shayx muridning haqiqiy otasidir”. Tasavvuf lug‘atlarida izohlanishicha, so‘fiylar jismoniy jihatdan hazrati Odamni, risolat jihatidan rasul sifatiga ilk sohib bo‘lmish Hazrati Nuhni, musulmonlik, islom yuzasidan Hazrati Ibrohimni, ruhoniyatda esa Ruhi Muhammadiyani bobo sifatida qabul etganlar.

Xalq og‘zaki ijodida jismoniy va ruhoniy bobolar ko‘p o‘rinlarda o‘zaro uyg‘unlikda ko‘zga tashlanadi. Zero, turkiy xalqlarda ajdodlar, urug‘, qabila boshliqlari, oqsoqollarni ulug‘lash va hurmat qilish axloqning asosiy mezonlaridan sanalgan. “N.M.” tazkirasida ham turkistonlik shayxlar bobo deb ataladi: “Dedilarki, Bobo Faraj Tabriziydurki, Haq taoloning majzublari va mahbublaridindur. Shayx ul kecha beqaror erdi. Saboh ustod xizmatig‘a kelib dediki, Bobo Faraj xizmatig‘a borali va iltimos ko‘rguzdi. Ustod as’hob bila muvofaqat ko‘rguzdilar. Bobo xonaqosi eshigida xodime erdi, Bobo Shodon otlig‘, chun alarni ko‘rdi, ichkari borib, Bobodin ijozat tiladi. Bobo dedikim, agar andoqki Tengri dargohig‘a borurlar, kela olsalar, kir, denglar! Shayx debdurkim, chun Boboning nazaridin bahramand bo‘lub erdim. So‘zining ma’nisini bildim”.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Раҳмонова З. Ишқ, ирфон ва иршод. – Т., 2021.*

Z.R.

BOBO ALIBEK (Amir Bobo Ali) – (XV asr 2-yarmi, XVI asr boshi) N. tomonidan tarbiyalab yetishtirilgan davlat arbobi, lashkarboshi, N.ning sodiq maslakdoshi va yaqin kishisi, Husayn Boyqaroning nufuzli amirlaridan biri.

N. hayoti va faoliyatiga oid tadqiqotlarda uning yaqinlari va do‘stlariga ham to‘xtalib o‘tilgan. Lekin bunda tadqiqotchilar, asosan, o‘z diqqat-e’tiborlarini shoirning she’riyatga, ilm-fanga

aloqasi bo‘lgan do‘stlariga qaratgan. Holbuki, N. faqat ijodkor emas, davlat arbobi, siyosatchi ham edi. U qariyb 30 yil davomida Xurosonning siyosiy-ijtimoiy hayotiga ta’sir ko‘rsatgan. Davlat arbobi sifatida o‘z siyosiy qarashlarini ro‘yobga chiqarishga intilgan va bunga muayyan darajada erishgan ham. Bunda asosiy og‘irlik N.ning zimmasiga tushgan bo‘lsa-da, maslakdosh va tarafdori bo‘lgan beklar, davlat arboblari, boshqa sodiq kishilar ko‘p bo‘lgan. Shulardan biri B.A.dir.

Ushbu tarixiy shaxsning kelib chiqishi, yoshlik davri haqida ma’lumot yo‘q. Uning nomi manbalarda birinchi marta 1470-y. voqealari (Yodgor mirzoning qo‘lga olinishi) bayonida N. nomi b-n yonma-yon, uning navkari sifatida tilga olinadi. Sulton Husayn mirzo tarafdorlari b-n Bog‘i Zog‘onga bostirib kirganida, ko‘shk yonida tikilgan chodirni ko‘radilar. Sulton Husayn chodirda odam bor-yo‘qligini aniqlash, bor bo‘lsa, tutib chiqishni buyuradi. N. buyruqni bajarish u-n navkari Bobo Alibekni chodirga yuboradi. U chodirga kirib chiqib, hech kim yo‘qligini aytgandan so‘ng ko‘shk qurshab olinadi. Sulton Husayn qasr tepasiga chiqishga farmon beradi. Lekin hech kimning bunga yuragi dov bermaydi. Shunda N. Sultondan izn so‘raydi. Ijozat olgach, otini B.A.ga topshirib, o‘zi qilichiga tayangan holda qasr tepasiga chiqadi.

B.A. N.ga sadoqat b-n xizmat qilib, mard va jasurligi b-n e’tibor qozonadi. Hatto podshohning ham nazariga tushadi. Sulton Husayn mirzo unga amirlik rutbasini beradi. Yuksak mavqe va martabaga erishgandan so‘ng ham B.A. N.ga ixlos va sadoqatini saqlaydi. Ulug‘ shoir eng og‘ir damlarida unga suyanadi. Shu nuqtayi nazardan “Habib us-siyar”da Xondamir keltirgan mana bu ma’lumot diqqatga sazovordir: “892 yilning qish faslida oliy makon xoqon... Nizomiddin Alisherni dorulfath Astrobod hokimligi b-n sarafroz qilishga mayl qildi.... To‘g‘ri tadbirlik amir xoqon o‘tinib so‘ragandan so‘ng rozi bo‘ldi. Olampanoh dargoh mulozimlaridan amir Nizomiddin B.A. va amir Badriddinlarni birga olib ketdi”. N. tarjimayi holidan bizga ma’lumki, Astrobod davri shoir hayotining eng og‘ir damlari bo‘lgan edi. Ana shunday paytda N.ning B.A. va uning do‘sti Badriddinbeklarni o‘zi b-n birga olib ketgani ularning shoirga o‘ta yaqin bo‘lganliklarini va N. ularga ishongani va suyanganini ko‘rsatadi.

Ko‘p vaqt buyuk mutaffakir b-n birga bo‘lish, hamkorlik qilish B.A.ning dunyoqarashiga va siyosiy pozitsiyasiga katta ta’sir ko‘rsatgan. U doimo barcha masalalarda N. b-n yakdil bo‘lgan, uning siyosiy yo‘lini qo‘llab-quvvatlagan, xususan, saroyda eshik og‘asi mansabini egallab, podshohning eng yaqin kishlaridan bo‘lgan yilida u N. tarbiyalab yetishtirgan arbob sifatida o‘zaro feodal urushlarning oldini olish, mamlakat birligini saqlashda N.ga hamkor bo‘lgan, u b-n yelkama-yelka turib isyonkor beklar va shahzodalarga qarshi kurashgan. Jumladan, 1498-y. da Badiuzzamon mirzo Hirotga hujum qilganda, N., Amir Muhammad Valibek shahar mudofaasini tashkil qilganlar va bunda Bobo Alibek ham ishtirok etgan. Badiuzzamon b-n bo‘lgan jangda u lashkarning so‘l qanotida turgan.

N. amirlikdan iste’fo berganida, bu mansabga daxldor barcha narsalarni Amir B.A.ka topshirgan. Bu haqda “Tarixi Rashidiy” asarida shunday ma’lumot berilgan: “O‘z amirlik mansabining barcha jihatlarini – xizmatkorlarini, xazinani, sayisxonani, podshohlik imoratlarini u (Navoiy) Sulton Husayn mirzoning noibi amir Bobo Aliga topshirgan”. Muhammad Haydar mirzo Bobo Alibekni “O‘z davrining buyuk sipohiylaridan edi” deb ta’riflagan. B.A.ning vafot etgan yili ma’lum emas. Uning o‘g‘li Yunus Ali Bobur xizmatiga kirgan va uning e’tiborli beklaridan bo‘lgan.

Ad.: *Хондамир. Ҳабиб ус-сияр. – Т., 2011; Эргашев К. Некоторые аспекты государственной деятельности Алишера Навои. – Т., 2009; Муҳаммад Ҳайдар мирзо. Тарихи Рашидий. – Т., 2010; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985.*

Q.E.

BOBO KO‘KIY – Xuroson so‘fiylaridan. XV asrda yashagan. Umrining katta qismi Hirot-

da o‘tgan va shu shaharda vafot etgan. Hirotning mashhur Xiyobonida dafn qilingan.

N. uni “N.M.”da zikr etgan. Tazkiradagi ma’lumotlar, asosan, N.ning otasidan eshitgan Bobo Ko‘kiy b-n bog‘liq bir voqeaning bayonidan iborat. Unda hikoya qilinishicha, shoirning otasi podshoh buyrug‘i b-n bir ish yuzasidan Astrobodga borgan. O‘sha vaqtda yo‘lda bir majnunsifat yigitni uchratadi hamda unga niyoz sifatida bir diram pul beradi. Lekin yigit pulni olmaydi va “kurta jubbani oluram” deydi. Havo sovuq bo‘lib, Kichkinabek kurta jubba – paxtalik issiq kiyim kiygan edi. U yigitning gapini jubbani olish maqsadidagi nayrang sifatida qabul qiladi va otini surib o‘tib ketadi. Shoirning otasi bir manzilga yetganda yana B.K.ni uchratadi va u o‘sha so‘zlarini takrorlaydi. Bir necha kundan so‘ng Astrobodga kirib boradilar. U yerda bir darveshni uchratadilar. U yalang‘och edi. Kichkinabek egnidagi kurta jubbani yechib, darveshga beradi. Bir ozdan keyin haligi yigit ham yetib keladi va shoirning otasiga qarab “Kurta jubbani oldim” deydi. Kichkinabek bundan hayratga tushadi.

Amir Astrobodda ancha vaqt turadi. Shu orada Hirotda bir majzub paydo bo‘lgani haqida ovoza tarqaladi. Shoirning otasi poytaxtga qaytgandan so‘ng majzubning ziyoratiga boradi va Astrobod yo‘lida o‘zi uchratgan yigitni ko‘radi.

Yuqoridagi hikoyadan Bobo Ko‘kiyning majzublardan ekani ma’lum bo‘ladi. Uning “majzub yigit” deb atalishi ilohiy jazba Bobo Ko‘kiyga yoshlik paytida yetishganidan dalolat beradi va bu tasavvufda o‘ziga xos sharafli maqomdir. N. o‘zining yigitlik paytida yozgan masnaviysida (“Sayyid Hasan Ardasherga maktub”) ana shuni orzu qilgan edi:

Xayolimda andog‘ musavvar bo‘lur,
Ki ul iki ishdin muyassar bo‘lur.

Biri buki, bir jazba Haqdin yetib,
Ko‘ngulni yaqin jomidin mast etib,

Haqiqat sori turktoz aylagay,
Jahon shug‘lidin beniyoz aylagay.

Anga qolmag‘ay ham o‘zidin xabar,
O‘zidin nekim, o‘zlugidin asar.

Qabri Hirot shahri xiyobonida.

Ad.: *Алишер Навоий. Маснавий. ТАТ. 10 жилдлик. 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

E.O.

BOBO PIRIY – majzub so‘fiylardan bo‘lgan. Kuchli jazba sohibi bo‘lib, undan ko‘p karomat, ya’ni odatdan tashqari ishlar sodir bo‘lganini naql qiladilar. Malomatiylardan bo‘lib, o‘z holini yashirish u-n oldidan o‘tgan xalqni so‘kib, haqorat qilgan. Shuning u-n N. u o‘tirgan yerdan sira o‘tmas ekan. Bir kuni yo‘li shu yoqqa tushganida hamrohi so‘raydi:

– Nega sen hamisha yo‘lingni Bobodan chap solib ketasan?

– Uning beparda so‘kishlarini eshitgim kelmaydi, – deb javob beradi N.

Hamrohi aytadi:

– Boboning karomati bor, deydilar. Agar shu gap rost bo‘lsa, seni so‘kmaydi.

Sinash u-n uning oldidan o‘tadilar.

Odatiga xilof ravishda u N.ni so‘kmaydi, bil’aks duo qiladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

E.O., M.I.

BOBO SAVDOYI (XV asr oxiri – Abivard – 1449) – shoir. Dastlab Xovariy taxallusi b-n ijod qilgan. So‘ng unga g‘aybdan jazba yetib, aql-u hushidan judo bo‘ladi. Odamlardan uzilib, bir necha yil yalang‘och holda Xovaron dashtida devonalardek kun kechiradi. Shu sababli Savdoyi nomi b-n mashhur bo‘ladi. Xalq orasiga qaytgach, buni o‘ziga taxallus qilib oladi. 80 yoshdan ortiq umr ko‘rgan.

Davlatshoh Samarqandiy uni go‘zal tab’ va yetuk shoirona iste’dod sohibi sifatida ulug‘lab,

badiiy barkamol she'rlar yozishini aytadi. Boysung'ur Mirzo nomiga ajoyib qasida ijod qilgan. Yana buyuk salaflariga tatabbu' qilib ham badiiy puxta qasidalar yaratgan. Zarif inson bo'lganidan hukmdorlar-u hokimlarning e'tirof va ehtiromiga sazovor bo'lgan. Ba'zilar uni avliyolar sirasiga ham kiritadi. O'z davri shoirlarning yetakchisi bo'lib, ijod ahli uni qattiq hurmat qilgan. Abivardning Sukkon (Sangon) qishlog'ida dafn etilgan.

N. "M.N." tazkirasida uning bir matla'sini namuna sifatida keltiradi:

Anbarat xol-u ruxat vard-u xatat rayhon ast,
Dahanat g'unchavu dandon dur-u lab marjon ast.

Tarj.: Xoling anbar, yuzing gul, xating rayhon, og'zing g'uncha-yu, tishing dur-u labing marjondir.

Xalq orasida B.S. b-n bog'liq ko'plab rivoyat-u hikoyatlar ham yaratilganki, Davlatshoh Samarqandiy "Tazkirat ush-shuaro"sida ulardan ayrimlarini keltiradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар бўстони ("Тазкират уш-шуаро"дан). – Т., 1981.*

E.O.

BOBO SARIG' PO'LOD – N.ga zamondosh so'fiylardan. U haqida "N.M."da mo'jazgina ma'lumot berilgan. Asli Rumdan bo'lib, nasabida sayyidlik sharafi bor edi. Chin so'fiylardan bo'lib, fanoyi mutlaq edi. Jun xirqadan bo'lak kiyimni sira qabul qilmagan. Birovdan bir luqma taom ham so'ramagan. Zamon podshohi va arkoni davlat b-n yaqinligi bo'lsa-da, hech qachon ulardan biror tuhfa qabul qilmagan. Makka yo'lida vafot etgani u-n qabri ma'lum emas. N. b-n nihoyatda yaqin bo'lgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

E.O., M.M.

BOBO XOKIY (t.y. va v.e.y.n.) – taniqli tariqat ahllaridan biri. N.ga zamondosh bo'lgan va uni duoyi xayr qilgan. Husayn Boyqaro uning ruhiy madadi va ishorati b-n Foryob va Maymanani olgan. Bu haqda "N.M." tazkirasida ma'lumot beriladi.

"M.N." tazkirasida esa uning Kusavdan bo'lib, Xoja Kusaviy xizmatida ekani, darvesh kishi bo'lib, she'r aytishi haqida ma'lumot beriladi va bir matla' namuna sifatida keltiriladi:

Niyozmandi tuem, ey ba noz parvarda,
Turo zamona ajab dilnavoz parvarda.

Tarj.: Ey noz ta'limida yagona, biz sening muhtojlaringmiz, zamona seni rosa dilni oluvchi qilib yaratgan-da!

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

E.O.

BOBO XUSHKELDI – XV asrda zuhur qilgan Xuroson valiylaridan. Niso viloyatiga qarashli kentlarning birida yashagan. Bobo Ali Mast Nisoyi, Mir Darzi, Sayyid Muhammad Madaniy kabi valiylar b-n zamondosh bo'lgan. Ularning barchasi bir viloyat hududida istiqomat qilganlar. Hozir bu yerlar Turkmaniston tarkibida bo'lib, qadimiy Nisoning xarobalari Ashxobod yaqinida saqlanib qolgan.

B.X. haqida N. "N.M."da qisqacha ma'lumot bergan. Unda B.X.ning bir karomati qayd etilgan. O'sha vaqtda Niso viloyatida vabo kasali tarqalgan va ko'p xaloyiq ushbu ofat tufayli o'lgan. Vabo viloyatning barcha kentlariga tarqalgan, faqat B.X. yashagan kentga dorimagan. B.X.ning ushbu karomatiga N. Bobo Ali Mast Nisoyi zikrida ham to'xtalgan. Uning yozishicha, vabo Astroboddan Xurosonga tarqalgan paytda Bobo Ali Mast Nisoyi bir oqshom o'z takyasidan g'oyib bo'lgan. Keyinroq u yuzlari yaralangan, qonga bo'yalgan holda qaytib kelgan va shunday degan: "Yog'iy keladur, urdi, urushtuk, yog'iy biz-

ni bosti, ammo Xushkeldi o‘z g‘animin bosti”. Chindan ham Nisoga vabo yetib kelganda Bobo Ali Mast Nisoyi vabodan o‘lgan, B.X. yashayotgan kentga esa vabo tarqalmagan.

N. B.X.ni “Majzub va mag‘lub kishi ermish” deb ta’riflaydi. Ushbu ta’rifdagi “majzub” so‘zi B.X.ning Haqdan ilohiy jazba yetgan avliyolardan ekanini bildiradi. Bu o‘rindagi “mag‘lub” ta’rifi ham alohida diqqatga sazovor. U solikning Haq oldida taslim bo‘lishini, uning ko‘nglida Haq ishqi g‘olib, ko‘ngil esa mag‘lub ekanini anglatadi. Solikning bu holati “M.”da Sulton Husayn Boyqaro tilidan bitilgan bir ruboiyda o‘zining yorqin ifodasini topgan:

Tolib meni-yu o‘zini matlub etgay,
Rog‘ib meni-yu o‘zini marg‘ub etgay,

Oshiq meni-yu o‘zini ma’shuq etgay,
Ishqini g‘olib, ko‘ngulni mag‘lub etgay.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Муншаот. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

Q.E.

BOBO SHIHOB – majzub so‘fiylardan. Tog‘asining qizini sevib qolib, uning ko‘yida telba bo‘lgan. Shu oshuftaligida unga jazba yetgan. Bolalar tosh otib, uni masxara qilgan. N. b-n yaqin bo‘lib, huzuriga kelib turgan. Bir kuni nihoyatda irkit kiyimda kelib, to‘rga chiqib o‘tirgan. Uning bu ishidan N.da malollik zohir bo‘lganini ko‘rib, quyidagi baytni o‘qigan:

Man on jo nishinam, ki ra’yi man ast,
Man on jo nashinam, ki joyi man ast.

Tarj.: Men o‘z o‘rnimga emas, xohlagan joyimga o‘tiraman. El ko‘zidan g‘oyib bo‘lib, o‘lik-tirigi ma’lum bo‘lmagan.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

E.O.

BOBOJON Maxdum Ibn Domlo Xudoybergan Oxund (XIX asr oxirlari, Xorazm) – shoir, tarjimon va xattot. U Sanoiy taxallusi b-n she’r yozgan. “Mehriumoq” qissasini tarjima qilib, chiroyli nasta’liq xatida ko‘chirgan. B.M. N.ning “X.”, “X.M.”, “M.Q.” va boshqa bir necha asarlarini 1856–1867-yy. oralig‘ida chiroyli nasta’liq xatida ko‘chirgan.

Ad.: *Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. – Т., 1991.*

Muh.A.

BOBO HASAN TURK (XIV asrning oxirgi choragi – XV asrning birinchi yarmi) – turk mashoyixi jumlasidan bo‘lgan avliyo. Xuroson poytaxti Hirot shahrida yashagan va shu yerda vafot etgan. Xiyobonda dafn etilgan. Majzub, ya’ni ilohiy jazba yetgan, xalq tilida devona deb ataluvchi darveshlardan.

N.ning tazkirasida zikr etilgan. Tazkirada keltirilgan ma’lumot, asosan, B.H.T. b-n bog‘liq bir voqeaning bayonidan iborat. Bir qish kechasi qor ko‘p yog‘ib, qattiq sovuq bo‘lgan paytda B.H.T.ning jazbasi kuchayadi va u takyasidan yalang‘och holda chiqib ko‘chalarda kezib yuradi. Ertalabga yaqin jazbasi pasayganda darvesh sovuqni sezadi va isinib olish maqsadida bir hammomning gulxaniga yaqinlashadi. Olov yonida bir kishi bo‘lib, u o‘tni kuchaytirish u-n gulxandagi o‘tinlarni kurak b-n turtayotgan edi. Bu odam B.H.T.ning isinib olishiga to‘sqinlik qiladi. Shunda B.H.T. uning qo‘lidan kurakni tortib oladi va haligi kishining boshiga urib uni o‘ldirib qo‘yadi. So‘ngra uning oyog‘idan sudrab nariroqqa olib borib tashlaydi. O‘zi esa boyagi kurak b-n turtib, olovni avj oldira boshlaydi. O‘tib ketayotgan odamlar o‘likni ko‘radilar va o‘t yoniga keladilar. Qarasalar, bir yalang‘och telba olov oldida isinib o‘tiribdi. Undan bu kishini kim o‘ldirgani haqida so‘raydilar. B.H.T. deydiki, men o‘ldirdim. Odamlar uni tanib, ortiqcha savol bermaydilar. Lekin o‘ldirilgan kishining qarindoshlari B.H.T.ni Shohrux mirzo o‘rdasiga olib boradilar va voqeani bayon qiladilar. Mirzo

B.H.T.dan “Bobo, seni bir kishini o‘ldirdi deyaptilar, shundaymi?”, – deb so‘ragan. B.H.T. “Ha, shunday”, – deb javob qilgan. Mirzoning “Nima uchun o‘ldirding?”, – degan savoliga javoban “Munchani sen o‘ldurdung, biravni dag‘i men o‘ldurdum”, – degan. N.ning yozishicha, ushbu javobdan so‘ng Shohrux mirzo B.H.T.ga boshqa hech nima demagan. O‘ldirilgan kishining vorislariga diyat (xun puli) to‘lab, ularni rozi qilgan va B.H.T.ga ketishga ijozat bergan.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

Q.E.

BOBU TOG‘I – Bag‘dodda joylashgan tog‘ nomi. Bu tog‘da Shayx Mansur Halloj dorga osilgan. Bu fojiali voqea sabab Bobu tog‘i mashhur bo‘lgan. N. “N.M.”ning Abdulmalik Is’hoq (q.s.) zikrida u tilga olinadi: Abdulmalik ayttikim, bir kun Hallojdin so‘rdiki, ey shayx, orif kimdur? Ul ayttikim, orif uldirki, uch yuz to‘qqizda, zulqa’da oyining yigirma to‘rtida seshanba kuni oni Bag‘-dodda Bobu toqqa eltgaylar va oyog‘-ilgin kesgaylar va ko‘zin o‘yg‘aylar va sarnigun dorg‘a osg‘aylar”.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

B.R.

BOBUR SULTON ABULQOSIM – (1422, Hirot – 1457, Mashhad) temuriy hukmdor. 1452–1457-yy.da Xuroson taxtida o‘tirgan. Bobosi Shohrux mirzo vafotidan keyin aka-ukalari (Alouddavla mirzo, Sulton Muhammad mirzo) b-n toj-taxt talashib, g‘olib chiqqan.

B.S.A. N. va Husayn Boyqaroning hayotida ijobiy rol o‘ynagan. Ular birgalikda juda yosh paytlaridan boshlab Bobur mirzo saroyida xizmat qilganlar. Husayn Boyqaro Samarqandga borib, u yerda Abusaid tomonidan qamoqqa olinganda, B.S.A. uning ozod qilinishi u-n sa’y-harakatlar ko‘rsatgan va Abusaidga elchi yuborib, Sulton Husaynni ozod qilishga erishgan.

N.ning otasi Kichkina bahodir ham Abulqosim Bobur qo‘lida xizmat qilgan. Bobur uni Sabzavor hokimi etib tayinlagan.

B.S.A. N.ga g‘amxo‘rlik qilib, ilm orttirishga da’vat etgan, xususan, she’riy ijod sohasida uni rag‘batlantirgan. Bu xususda Davlatshoh Samarqandiy shunday ma’lumot beradi: “Sulton Abulqosim Bobur so‘zamol va hunarparvar podshoh edi, hamma vaqt ulug‘ amirga (N.ga) tab’ining muloyimligi, ziyrakligi u-n ofarinlar o‘qir, ba’-zi paytlarda ulug‘ amir bitgan turkiy yoki forsiy she’rlarini mutolaa qilar, tab’ining qudrati va sharofatli so‘zlarining shirinligidan taajjublanardi, bedarig‘ marhamatidan bahramand qilar va xayrli duolar b-n qo‘llab-quvvatlardi”.

N.ning “N.M.” asaridagi ma’lumotlarga ko‘-ra, yosh Alisherning aruz va sanoye’ ilmlarini o‘rganishi ham B.S.A.ning tashabbusi b-n bo‘lgan. U buning u-n o‘sha davrning katta olimlaridan bo‘lgan sabzavorlik Darvesh Mansurni safarbar qilgan va Alisherga saboq berishni unga topshirgan.

N. “M.N.”da B.S.A.ni iliq so‘zlar b-n ta’riflaydi, xususan, insoniy fazilatlarni qayd etadi: “darveshvash va foniy sifat va karim ul-axloq kishi erdi. Himmati oldida oltunning dag‘i kumushning tosh va tufrog‘cha hisobi yo‘q erdi” deb yozadi. Uning tasavvuf risolalarini ko‘p o‘qiganini ta’kidlaydi. Shoir sifatida ham iqtidorli ekani, yozgan she’rlari o‘quvchilarga maqbul bo‘lishini aytib, she’rlaridan namuna keltiradi. Jumladan, asarda Bobur mirzoning ushbu bayti sabt etilgan:

Nega yuzung ko‘rub hayron o‘layin,
Ilohi, men senga qurbon o‘layin.

N. “M.N.”ning boshqa o‘rinlarida ham turli munosabatlar b-n B.S.A.ni tilga oladi va u so‘zlar shoirning unga bo‘lgan yuksak ehtiromini ko‘rsatib turadi. M-n, Shohrux mirzo zikrida N. u haqidagi hikoyani bayon qilar ekan, uni Bobur mirzo og‘zidan eshitgani to‘g‘risida shunday yozadi: “Bu faqiri haqir Bobur Sulton muborak

tilidin mundoq eshittimkim...”. Shuningdek, tazkirada Hofiz Sharbatiy, Mavlono Muhammad Muammoiy zikrlarida hikoya qilingan qiziqarli va maroqli voqealar ham B.S.A. b-n bog‘liqdir.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Т., 1967; Абдураззоқ Самарқандий. Матлаъи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. 2-жилд. – Т., 2008.*

M.A.

BOBUR ZAHIRIDDIN MUHAMMAD (1483, Andijon – 1530, Agra) − davlat arbobi, shoir, olim, tarjimon, musiqashunos. B.Z.M. ijodi mumtoz so‘z san’atimizda N. dan keyingi alohida bosqichni tashkil etadi. U adabiyotni hayotga, adabiy tilni xalq tiliga yaqinlashtirdi. Atoiy, Lutfiy she’rlaridagi xalqchillik B.Z.M. asarlarida yangicha shaklda qayta tug‘ildi. B.Z.M. sohibdevon shoir bo‘lsa-da, uning devoni bizgacha mukammal holda yetib kelmagan. Hozirgacha shoirning 119 g‘azal, 1 masnaviy she’ri, 209 ruboiysi, 10 dan ortiq tuyuq va qit’alari, 50 dan ortiq muammo va 60 dan ziyod fardlari aniqlangan. Devoni tarkibidan umumiy hajmi 270 baytdan iborat 8 masnaviy ham o‘rin olgan.

Adabiyotshunos olima Shafiqa Yorqin B.ning Istanbul universiteti kutubxonasi turkiy qo‘lyozmalar bo‘limida 3743 raqami ostida saqlanayotgan devonidagi uning hozirgacha nashr etilgan to‘plamlariga kirmagan o‘zbek tilidagi 5 g‘azali, 9 qit’asi, 5 ruboiysi, 9 masnaviy she’ri, 10 to‘rtligi, 2 tuyug‘i, 40 dan ortiq fardlari, qator masnu’ she’rlari, 1 masnu’ tarje’bandi, 2 nomasi, forstojik tilidagi 1 g‘azali, 10 ruboiysi, 4 qit’asi, 12 fardi va 1 nomasini e’lon qildi.

Bundan tashqari, B.Z.M. o‘g‘illari Humoyun va Komron Mirzolarga atab, shariat aqidalariga bag‘ishlangan “Mubayyin” asarini, aruz nazariyasiga oid “Muxtasar” kitobini yaratgan. Xoja Ahror Valiyning “Volidiya” risolasini she’riy tarjima qilgan. Arab alifbosini isloh qilib, yozuvni soddalashtirish va osonlashtirish, uni turkiy til va talaffuz mezonlariga moslashtirish maqsadida “Xatti Boburiy”ni ixtiro etgan. Uning musiqa san’ati va harb ishlariga doir risolalari ham bo‘lib, ular hozirgacha topilmagan.

Uning “Boburnoma”si o‘zbek adabiyotidagi dastlabki nasriy memuar va tarixiy-ilmiy asari taxm. 1518–1530-yy.da yozilgan. “Boburiya”, “Voqeoti Bobur”, “Voqeanoma”, “Tuzuki Boburiy”, “Tabaqoti Boburiy” va “Tavorixi Bobur” nomlari b-n ham mashhur. Boburning o‘zi “Vaqoye” va “Tarix” nomlari b-n tilga olgan. Unda 1494–1529-yy.da Movarounnahr, Afg‘oniston, Xuroson va Hindistondagi voqealar muallif hayoti va faoliyati, uning munosabati va bahosi b-n bog‘liq holda o‘ta aniq va xolislik b-n yorilgan.

Asarda Husayn Boyqaro, Muhammad Shayboniy, Ubaydulloxon, Shoh Ismoliy Safaviy, Ibrohim Lo‘diy kabi o‘nlab hukmdorlar, Kamoliddin Binoiy, Muhammad Solih, Behzod, Xondamir, Mirzo Haydar singari qator adabiyot va san’at namoyandalari qatorida N. to‘g‘risida ham muhim ma’lumot va xotiralar keltirilgan.

N. B.Z.M. u-n har jihatdan – hayotda ham, ijodda ham, insoniylik fazilatlari va davlatni boshqarish yo‘riqlari tarafidan ham ideal darajadagi inson edi. U o‘zining buyuk salafini “Boburnoma”da bir necha o‘rinda tilga oladi. Asar boshidayoq Andijon ta’rifini keltirar ekan, “Mir Alisher Navoiyning musannafoti, bovujudkim Hirida nash’i namo topibtur, bu til biladur”, deydi. Keyin Ahmad Hojibek ta’rifida uni tilga oladi: “N. Hiridin Samarqandg‘a kelgan fursatlar Ahmad Hojibek bila bo‘lur edi. Sulton Husayn Mirzo podshoh bo‘lg‘ondin so‘ngra Hirig‘a keldi. Asru ulug‘ rioyat topdi”. So‘ng Husayn Boyqaro b-n o‘g‘li Badiuzzamon o‘rtasida Astrobod munosabati b-n boshlangan urush va unda N.ning vositachilik qilishi xususida fikr yuritiladi N. va Husayn Boyqaro o‘rtasidagi bir hikoyat keltiriladi: “Bir kuni Alisherbek b-n Mirzoning orasida bir suhbat o‘tdikim, u Mirzoning tezfahmliligi-yu Alisherbekning ko‘ngli nozikligiga dalildir. Alisherbek sirli so‘zlarni Mirzoning

qulog‘iga shivirladi-yu: “Bu so‘zlarni unuting!” – dedi. Mirzo darhol: “Qaysi so‘zlarni?” – dedi. Alisherbek bundan ta’sirlanib, ko‘p yig‘ladi.

Shayboniyxonga qarshi birgalikda kurashish maqsadida Husayn Boyqaro o‘g‘illari da’vati b-n Hirotga kelib, N. uyida yashaganida Sulton amirlari qatorida unga har tomonlama keng ta’rif beradi. Husayn Boyqaro taxtga o‘tirganida, shialarning 12 imomi nomini ham xutbaga qo‘shib o‘qitmoqchi bo‘lganida, N. va boshqalar uni bu yo‘ldan qaytarganini aytadi.

N. huzurida Kamoliddin Gozurgohiy kabi mutasavviflar yig‘ilib, vajdu samo’ qilishlari haqidagi muhim ma’lumotni ham “Boburnoma”dan bilib olamiz. Asarda Binoiy va N. o‘rtasidagi goh jiddiy, goh hazil ma’nosidagi hangomalarga ham to‘xtalib o‘tiladi. M-n, musiqadan bexabarligi u-n N. Binoiyni hamisha tanqid qilib kelgan. Bir gal N. podshoh b-n Marvga borib, o‘sha yerda qishlaydi. Binoiy esa qish ichi musiqa b-n shunday qattiq shug‘ullanadiki, hatto kuy bastalash darajasiga yetadi. N. uning iste’dodi va g‘ayratiga qoyil qoladi. N. va Binoiy orasidagi bahs-u talashlarni muxoliflar har xil talqin qilishlari natijasida Binoiy Hirotda tura olmay Iroqqa – Sulton Ya’qub huzuriga yo‘l oladi. Hirotda bo‘lganida B.Z.M. N.ning “X.M.”sini mutolaa qilib, uning asosida terma devon ham tuzgani haqida ma’lumot beriladi: “Odina kuni, oyning yigirma uchida Alisherbekning to‘rt devonidin buhur va avzon tartibi bila g‘azallar va abyotkim, intixob qililadur edi, itmomig‘a yetti”.

Ma’lum bo‘ladiki, B.Z.M.ning “Boburnoma”si N. davri, shaxsi, hayoti, faoliyati, ijodi, muhiti, safdoshlari to‘g‘risida muhim ma’lumotlar berishi jihatidan n.shunoslik u-n ham muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 2002; Абдуғафуров А. Бобурнома // ЎМЭ, 2-жилд. – Т., 2001; Иброҳимов А. Бобурнома – буюк асар. – Т., 2000; Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси. – Т., 2014; Очилов Э. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. – Т., 2013; Мирзо Муҳаммад Ҳайдар. Тарихи Рашидий. – Т., 2011; Муҳаммаджонов А., Абдуғафуров А. Бобур // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2-жилд. Эрскин У. Бобур Ҳиндистонда (Ғ.Сотимов таржимаси). – Т., 1995; Бобур девони. Кобул нашрига такмила (қўшимча). Нашрга тайёрловчи Ш.Ёрқин. – Т., 2004.*

Q.E., E.O.

“BOBURNOMA” – Q.: BOBUR.

BODA (f-t.) – may, sharob, chog‘ir. Qadimgi pahlaviy tilidagi *bodak* so‘zi ta’sirida paydo bo‘lgan. B. kalimasi fors-tojik tilidagi *bod (shamol, yel, nasim, shabboda)* so‘ziga *o‘xshash, kabi, singari* mazmunni ifoda etuvchi – *a* qo‘shimchasini qo‘shish b-n hosil qilingan. Bu so‘z *“shamol kabi yengil”, “havoyi”, “g‘ururli”,* shuningdek, *“kuchsiz”, “sokin”* ma’nolarida ishlatilgan. Mast qiluvchi ichimlikning bir turi sanalgan boda uzumning turli navlarini aralashtirish yo‘li b-n tayyorlangan. Uning rangi to‘q qizil va qizg‘ish tusli, ta’mi nihoyatda shirin, ichgan kishiga tez ta’sir etuvchi, hidi esa xushbo‘y va yoqimli bo‘lgan. Mumtoz adabiyotda B. ishq-muhabbat, ma‘rifat, ma‘naviy huzur-halovatni tamsil qiluvchi timsol sanaladi. N. g‘azallaridan birida B.ning xususiyati tashbeh san’ati vositasida quyidagicha tavsiflanadi:

Soqiyo, bir boda tut, do‘zax o‘tidek hirqati,
Lek jannat kavsaridek lavn ila safvat anga.

Kavsar jannatdagi hovuzning nomi. Uning suvi asaldan totli, sutdan oq bo‘lib, bu suvdan ichgan kishi chanqoqlik nimaligini bilmaydi. Baytda “do‘zax o‘ti” va “Jannat kavsari”ni qarshilantirish orqali B.ning o‘ziga xos xususiyatlaridan bahs yuritilgan. Yoki boshqa bir baytda may va B. obrazlarini zidlash orqali oshiq ko‘nglidagi kechinmalar quyidagicha yoritiladi:

O‘zgalar birla icharsen may-u men zorg‘a ul
Boda yedurki, erur ta’mi achig‘, lazzati talx.

She’riy misradagi B. poetik timsol bo‘lib, ijodkor ruhiy va fikriy olamining yorqin manzaralarini tasvirlashda muhim o‘rin tutadi. Tasavvufda B. tariqat yo‘liga endigina qadam qo‘ygan solikning boshlang‘ich holati, haqiqiy muhabbatning ilk iztiroblarini anglatadi. Iroqiyga ko‘ra, B. oddiy insonlarga xos muhabbatni, shuningdek, Haq yo‘liga kirishni niyat qilgan solikning kayfiyatini hamda ruhning nisbatan kuchsiz, tinch va sokin holini bildiradi. Yuqoridagi baytda qo‘llanilgan B. timsoli ham ana shunday ma’nolardan xoli emas, albatta.

Boda istab zuhd tarki ayladim olg‘aymusiz,
Xirqavu sajjoda rahn etsam, xarobot ahli deng,–

deganda mutafakkir shoir mana shu ilohiy ishq B.siga talabgor solikning ichki kechinmalarini, ruhiy tug‘yonlarini tasvirlagan. Aytish joizki, Haq ma’rifati, haqiqiy muhabbatning shavq-u sururi, ko‘ngil haqiqati bor bo‘y-basti b-n ro‘y-rost ifodalangan N. she’riyatida har bir tushuncha, istiloh, obraz va timsolning ma’naviy ildizlariga favqulodda yaqinligi sezilib turadi. Chunonchi, B.ning ham. Tariqat yo‘liga endigina qadam qo‘ygan Haq oshig‘ining ruhiy va hissiy kechinmalariga uyg‘un tarzda B. timsoli ko‘pincha “subh”, “sabuh” va “sabuhiy” sifatlari b-n birgalikda qo‘llanishi shundan:

Boda keltur, chun quyoshtin chekti
maxfiy jom subh,
Kim erur jomi nishot ichmakka
xush hangom subh.

Maz.: Tong quyosh jomidan pinhona may ichdi, sen ham boda keltirki, tong shodlik jomidan may ichib, yaxshi suhbatlar qurmoq mahalidir.

Tasavvuf istilohida subh, ya’ni tong g‘aybdan keladigan hamda qalbda namoyon bo‘ladigan ilohiy nur va sirlarning jilvalanishini, namoyon bo‘lishini bildiradi. Sabuhiy boda esa, “ishqning qayta jonlanishi”, “ko‘ngilda muhabbat olovining alangalanishi”dirki, uning ta’sirida gulday qizargan ma’shuqa yuzining chiroyiga tong ham, quyosh ham go‘zallikda tenglasha olmaydi:

Yuzing sabuhi azal bodasidin andoqkim,
Ne subhg‘a bu sabohat, ne mehr muncha sabih.

Maz.: Chehrang azalning sabuhiy bodasidan shunday go‘zal bo‘lganki, na tong bunchalik yorug‘, na quyosh u qadar porloq.

Mumtoz she’riyatda sabuhiy B. va uning bir qator qiyoslari ko‘plab uchraydi, ammo subhda ichiladigan B.ning qizilligini xo‘rozning toji rangiga, uning ichuvchiga ta’sirini tong chog‘i uyqudagilarni uyg‘otuvchi xo‘rozga tashbeh qilish faqat N. tasavvuriga xosdir:

Subh icharga boda rangi o‘ylakim toji xurus,
G‘aflat ahlig‘a xurus afg‘onidin payg‘omi bor.

Maz.: Tong chog‘ida ichiladigan sabuhiy bodaning qizilligi xo‘rozning toji rangiga o‘xshaydi, u g‘aflat uyqusida yotganlarga xo‘rozning qichqirishidan xabar yetkazadi.

N. lirikasida B. *yor, la’l, yoqut, dori, otash, qon, mehr, yog‘du, ko‘z yoshi, sham, ruh, jon, obihayot* kabi bir qator tushunchalarga tashbehlangan. Yor go‘zalligi jonli tasvirlashi, oshiqning qalb kechinmalarini ta’sirchan aks ettirishi, tabiat va inson uyg‘unligining go‘zal ifodalarini yuzaga chiqarishi mutafakkir shoir she’riyatdagi B. timsolining badiiy-tasviriy imkoniyatlarini yanada kengaytirgan. Chunonchi, bir baytda binafsha rangli libos kiygan soqiy binafsharang qadahdagi qizil bodaga o‘xshatilib, yor go‘zalligining o‘ziga xos poetik surati nihoyatda tabiiy va san’atkorona chizilgan:

Gul kibi jismingg‘a, ey soqiy,
binafsh oyin to‘nung,
O‘yladurkim, bodai gulrang
uchun sog‘ar binafsh.

Tashbeh ijodkor tasavvur va badiiy ifoda imkoniyatlarining cheksizligini ko‘rsatuvchi betak-

ror san'atlardan biridir. Sof may jilosini to'lin oyga, yor yuzining yorug'ligi, partavi *"xurshidi duraxshon"* – porloq quyoshga o'xshatilishi ham bu fikrning yaqqol dalilidir:

Boda tobi-yu yuzung partavidin tiyra kecha,
To'lin oy ko'rdim-u xurshidi duraxshon toptim.

Boshqa bir o'rinda B. – qon, *"xoni visol"* (uchrashuv dasturxoni) – g'am yemoq, qayg'urmoq tushunchalarining o'zaro zidlashtirilishi natijasida insoniy kechinmalarning ajoyib tasviri yuzaga kelgan:

Elga ishrat bodasi tuttung yoyib xoni visol,
Vahki, bizni qon yutub,
g'am yerga xursand aylading.

Maz.: Ya'ni, barchaga o'zing b-n uchrashish dasturxonini yoyib, shodlik bodasini tutding, ohki bizni qon yutib, g'am yeyish b-n xursand etding.

N.ning may mavzusi qalamga olingan g'azallarida *may, B., sharob, chog'ir* kabi timsollarning ma'nodosh ishlatilgani kuzatiladi.

N. ijodida may timsolining B., sharob va chog'ir kabilarga nisbatan ko'proq qo'llanilishini ko'p asrlik mumtoz adabiyotimiz an'analariga mushtaraklikda, deb izohlash mumkin. Ammo shoirning may mavzusidagi g'azallarida turli qiyos-u tashbehlar, ko'pincha, B. timsoli b-n ifodalanadi:

Oh-u xunobimni lahn-u boda qilmishsen gumon,
Dilrabolar ichra sendin badgumonroq yo'q kishi.

Shuningdek, shoir she'riyatidagi B.yi *vasl,* B.yi *shavq,* B.yi *ishq,* B. *taryoki,* B. *mir'oti,* B. *sham'i,* B. *kishtisi (kemasi)* poetik birikuvlari o'zigacha bo'lgan she'riyatda uchramasligi va tabiiyligi b-n ajralib turadi.

Boda mir'otida shohid aksi zohir bo'lmadi,
Bodavu shohidqa bo'lmay naqdi pindorim fido.

Mir'ot − ko'zgu, oyna. Irfoniy adabiyotda ilohiy mazhar bo'lgan komil inson qalbi. Chunki oyna deganda, Allohning zoti, sifatlari, ismlariga ishora qilinadiki, ularning barchasi komil inson qalbida aks etadi. U dunyo tashvishlaridan uzilgan, barcha yomon o'y-xayollardan yiroq bo'lgan, sof ko'ngil timsoli hamdir. Boda esa, *"ilohiy ishqning ibtidosi"*. Zero, uni maromiga yetkazmasdan, ko'ngilni nafs iskanjasidan batamom xalos qilmasdan turib, bu ko'zguda shohid, ya'ni Haq jamoli namoyon bo'lmaydi.

Tahuro B.si – sof, tiniq, shaffof may. Islomiy e'tiqodga ko'ra, solih kishilarga jannatda beriladigan ilohiy sharob. N.da u ma'naviy poklik ramzi bo'lib, hayotga muhabbat tuyg'ularini uyg'otadi, kitobxonni jo'shqinlikka undaydi:

Tahuro bodasi *derlar erur jonbaxsh-u ruhafzo,*
Magarkim, choshniy ul
mayg'a la'ling sog'arindindur.

Maz.: Tahur bodasini jon baxsh etuvchi, ruhga shifo bo'luvchi deydilar, chunki bu mayning qadahi la'ling sog'aridir.

N. she'riyatida B. obrazi mutafakkir shoirning xilma-xil fikr-kechinmalari, o'y-tasavvurlarini yuzaga chiqarishda, shuningdek, lirik qahramonning dard-u iztirobi, quvonch-u qayg'usi, orzu-intilishlarini yorqin, teran va ta'sirchan ifoda etishda o'ziga xos o'rin tutadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Деҳхудо. Луғатнома. – Теҳрон, 1993-1994. Ж.u VIII. Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005; Асадов М. Соқийнома: тарих ва поэтика. – Т., 2020.*

M.A.

BOZOR KOSIBLARI – N. "M.Q."da turli ijtimoiy tabaqa vakillarini tavsiflar ekan, yigirma sakkizinchi faslni "Bozor kosiblari zikri"ga bag'ishlaydi. Bozordagi savdogar kosiblarni Tangriga xiyonat qiluvchi hamda va'dasiga vafo qilmaydigan yolg'onchilar, deya qoralaydi. Ularning badkirdorliklaridan so'z ochadi: "Oxirat ilmi savdosidin e'rozlari va amal mezoni adola-

tig‘a e’tirozlari. O‘g‘ul atog‘a boziy bermak peshalari, dag‘alliklarin kirom ul kotibayndin yoshurmoq andeshalari.

Bayt:

Bulardin kimki der o‘zni valiydur,
Agar bilsang yaqin, bir dog‘uliydur”.

Albatta, N.ning bu kabi keskin qarashlarini shoir yashagan davr hamda ijtimoiy muhit nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda talqin va tahlil qilish lozim.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

Z.R.

BOYSUNG‘UR MIRZO (1478–1499, Hisor) – temuriylardan. Otasi Sulton Mahmud mirzo, Onasi Pashabegim. Otasining hukmronligi davrida Buxoro hokimi bo‘lgan (1495-y. gacha). Sulton Mahmud vafotidan so‘ng Samarqandda hukmdorlik qilgan (1495–1497-yy.). B.I.ning qisqa davom etgan podshohlik davri mo‘g‘ullarga, isyonchi tarxon beklari va aka-ukalari Sulton Mas’ud va Sulton Ali mirzolarga qarshi kurash b-n o‘tgan. Bu kurashlarda N.ning do‘sti Ahmad Hojibek Boysung‘ur mirzoning asosiy tayanchlaridan biri edi. Shunga ko‘ra, N. ham B.M.ga xayrihoh bo‘lgan, deyish mumkin. Ahmad Hojibek Buxoroda Sulton Ali mirzo va tarxon beklariga qarshi urushda asirga tushgan. O‘ldirilgandan so‘ng har tomondan siquvga olingan B.M. taxtdan voz kechishga va Samarqandni tashlab chiqishga majbur bo‘ladi. U Hisor viloyatiga keladi (1498). Bu yerda u akasi Sulton Mas’ud o‘rniga hukmdor bo‘ladi. Lekin uning Hisordagi hukmronligi ham ko‘pga cho‘zilmaydi va u Amir Xusravshoh tomonidan o‘ldiriladi (1499). B.M. iste’dodli yigit bo‘lib, san’at va adabiyotni sevgan, she’rlar yozgan. Uning taxallusi Odiliy edi. Samarqandda she’rlari juda mashhur bo‘lib, deyarli har bir xonadonda o‘qilgan. N. B.M.ning ijodi b-n qiziqqan va uning shaxsiyati haqida ham yaxshi tasavvurga ega bo‘lgan. U B.M.ni “M.N”ning yettinchi majlisida zikr etgan. Ulug‘ shoir, eng avvalo, B.M.ning tab’i va zehniga yuqori baho berib, “tab’i diqqatliq va zehni javdatliq”, deb ta’riflaydi. So‘ngra uning shaxsiyati haqida iliq, ijobiy fikrlar bildiradi, turli fazilatlar orttirish, hunarlarni egallashga rag‘bati zo‘rligini aytib o‘tadi. N.ning bu ma’lumotlarini boshqa manbalar ham tasdiqlaydi. Jumladan, “Boburnoma”da Boysung‘ur mirzoning nasta’liq xatini yozishda mohir bo‘lgani, naqqoshlikni ham bilgani qayd qilingan. Uning ijodidan “M.N”da quyidagi forscha bayt keltirilgan:

Kosh dar ishqi buton devonaye boshad kase,
Tarki olam karda dar vayronaye boshad kase.

Tarj.: Koshki kishi go‘zallar ishqida devona bo‘lsa, olamni tark etib, vayronada yashasa.

Ad.: *Алишер Навоий Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Хондамир. Буюклик хислати, – Т., 2011; Заҳириддин Муҳаммад Бобур Бобурнома, – Т., 2002.*

Q.E.

BOYQARO MIRZO (1430, Hirot – 1486, Balx) – Sulton Husayn Boyqaroning tug‘ishgan akasi. Bu mirzoga bobosining oti qo‘yilgan. Ayrim manbalarda Sulton Muhammad Boyqaro deb ham tilga olingan. 1450-y.ning o‘rtalarida Samarqandga kelgan. Sulton Abusaid mirzo bir guruh temuriy shahzodalarni unga qarshi fitna uyushtirishda ayblab hibsga olganda, ular orasida B.M. ham bor edi. Bir necha vaqt Ko‘ksaroyda zindonda yotgan va onasi hamda Sulton Abulqosimning talablari b-n ozod qilingan. Ukasi Sulton Husayn mirzo taxt u-n kurash boshlaganda, Boyqaro mirzo uni qo‘llab-quvvatlagan va unga xizmat qilgan. Sulton Husayn mirzo hokimiyatni qo‘lga kiritgandan keyin akasiga Balx viloyatini bergan. B.M. 1472-y.dan 1486-y.gacha Balxni idora qilgan va shu yilda vafot etgan.

Oilalari o‘rtasida yaqinlik bo‘lgani tufayli B.M. N.ni juda yoshlik chog‘idan bilgan. Xonda-

mir “Makorim ul-axloq” asarida bolalik vaqtida N.ga Husayn Boyqaroning otasi Mansur mirzo va akasi Sulton Muhammad Boyqaro mehr b-n munosabatda bo‘lganliklarini aytib o‘tadi. N. b-n B.M. o‘rtasidagi munosabatlar keyinchalik ham juda samimiy bo‘lgan. Boyqaro mirzo aksariyat temuriylar singari ijod b-n ham shug‘ullangan. Shu sababli N. uni “M.N.”ning yettinchi majlisida zikr etgan. N. uni podshohning akasi va Balx viloyati hokimi bo‘lishiga qaramay, nihoyatda kamtar, odobli va tavoze’li kishi edi, deb tariflaydi. Uning ijodidan namuna sifatida esa quyidagi she’rni keltiradi:

Zihi tajalliyi husni tu dar jahon paydo,
Va z-in tajalliyi u gashta joni mo shaydo.

Tarj.: Sening husning jilvasi jahonda paydo bo‘ldi va jilva tufayli bizning jonimiz shaydo bo‘ldi.

N. B.M. nomini “S.” asarida ham tilga oladi. Bu vaqtda B.M. tirik emas edi. “S.”ning B.M. ning o‘g‘li Sulton Vays mirzoga bag‘ishlangan qismi shunday bayt b-n tugallanadi:

Bo‘lsun ujmoh aro Haqdin mag‘fur,
Atosi Boyqaro ibn Mansur.

Shu asarning B.M.ning boshqa bir o‘g‘li Iskandar mirzoga bag‘ishlangan qismidan so‘nggi bayt ham uning vafot etgan otasi (Boyqaro mirzo) va akasi haqiga duo mazmunidadir:

Ota-yu og‘osig‘a Hayyi mubin,
Rovzayi xuld aro bersun taskin.

Ad.: *Алишер Навоий. Соқийнома. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т,. 2011; Абдураззоқ Самарқандий. Матлаъ ас-саъдайн мажма ал-баҳрайн. 2-жилд. – Т., 2008.*

Q.E.



BOYQOBILOV Barot (1937, – Samarqand, – 2006, Toshkent) O‘zbekiston xalq shoiri (1997), Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti sohibi (1994), f.f.n. (1972). 40 dan ortiq she’riy kitob, 10 dan ziyod dostonlar, 100 dan ortiq sonetlar muallifi. B.B. ijodida N. mavzusi alohida o‘rin egallaydi. Shoir 1975–1990-yy. mobaynida N. yashagan va ijod etgan davrning bunyodkorlik ishlarini, zamonning o‘ziga xos murakkabliklari va qarama-qarshiliklarini qamrab olgan “Navoiynoma” asarini yaratgan. “Navoiynoma” besh kitobdan iborat. Birinchi va ikkinchi kitoblari 1981–1985-yy.da nashr qilingan. 1992-y.da “Navoiynoma”ning uchinchi va to‘rtinchi kitoblari “Sokin Xuroson” va “Qonli Xuroson” nomi b-n chop qilingan.

1994-y.da shoir yana moziyga qaytib, “Navoiynoma”ning beshinchi kitobini yozishga kirishadi va natijada, “Hayrat ul-Ahror” nomli she’riy romani yuzaga kelgan.

Uning N. haqidagi kitoblariga atoqli n.shunos A.Hayitmetov munosabat bildirgan.

Ad.: *Бойқобилов Б. Навоийнома. – Т., 1992.*

B.R.

“BOLA ALISHER” – Oybek qalamiga mansub qissa. Asarda buyuk mutafakkirning bolalik yillari haqida hikoya qilingan. Oybek “Navoiy” romanini yaratishda o‘zining g‘oyaviy-badiiy niyatiga ko‘ra asarga N.ni tayyor qahramon sifatida, el-u yurtning hurmati, e’tiborini qozongan shoir sifatida (30 yoshida) olib kiradi. Romanda N.ning bolaligi, uning inson, shoir sifatida shakllanishi, ulg‘ayishi ko‘rsatilmaydi. Buyuk mutafakkirning bolaligi haqidagi qissaning yozilishi tarixini adibning rafiqasi Zarifa Saidnosirova shunday xotirlaydi: “Navoiy” romanini yozish davrida bu ishtiyoqi yanada kuchaygan edi. Tili, uslubi jihatdan mazkur romanga yaqin bu qissa 1967-y.da tugallangan bo‘lsa-da, o‘ziga nisbatan g‘oyat talabchan adib uni qaytadan ishlash maqsadi bo‘lgani uchun e’lon qilishga oshiqmadi”.

Gazetaning 1966-y. 6-fevral sonida A.N. tavalludining 525 yilligi munosabati b-n “B.A.” qissasining boshlanishidan bir lavha bosiladi va tahririyat Oybek “Navoiyning bolalik va yoshlik chog‘larini aks ettiradigan “B.A.” degan qissasini tugallash arafasida ekanini” xabar beradi. Yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqib, qissa 1968-y. yozuvchining vafotiga qadar yozib tugatilgan, deyish mumkin. Qissa birinchi marta to‘la holda Oybek vafotidan keyin, 1974-y. “Guliston” jurnalida “Alisherning yoshligi” nomi b-n chop etiladi. Asarning 1995-y. “Cho‘lpon” nashriyotida chiqqan nashrida adabiyotshunos N.Karimovning so‘ngso‘zida shunday deyiladi: “Qissada to‘rt yoshli Alisherning bolalik kezlari tasvirlangani va uning adib hayotlik paytida e’lon qilingan parchasi “Bola Alisher” deb atalgani u-n shu nomni tiklashni lozim topdik. Nazarimda “Bola Alisher” degan sarlavhada sof oybekona ohang va oybekona ruh bor”. Qissada buyuk mutafakkirning daholik fazilatlari, xarakteridagi o‘ziga xos xislatlar uning bolalik chog‘idanoq kurtak ochganini ishonarli lavhalarda ochadi.

“Ot choptirishdan fikr yuritish yaxshiroqdir …”, “Ov qilmoq, merganlik ermak narsa, lekin eng zaruriyat maktabdir. Turmushning eng ko‘p sirlarini maktab o‘rgatadi”, “… omilik ko‘z bog‘ichidir”, deya bola yoshidanoq hamma qiziqishlaridan ko‘ra ilmni afzal ko‘rgan Alisher ongining shakllanishi, takomilida otasi G‘iyosiddin Kichkina, onasi Gulbegim beka, Husayn Boyqaro b-n maktabdoshlik davri, tog‘alari, yaqinlari ishtirokidagi adabiy muhit, Mirzo Ulug‘bekning falakiyot bobidagi kashfiyotlari, naychi bobo b-n bo‘ladigan suhbatlar barcha-barchasining ulkan ta’siri qissada ishonarli badiiy talqin etilgan.

Ad.: *Ойбек. Бола Алишер. Қисса. – T., 1995; Каримов Н. “Бола Алишер” қиссаси ва унинг муаллифи тўғрисида. Сўзбоши. – T., 1995; Саидносирова З. Ойбегим менинг. – T., 2005.*

Y.K., S.O‘.

BONU – “S.I.” dostonida shoh Faylaqusning xotini. Iskandarning o‘gay onasi, epizodik obraz bo‘lib, Iskandarning ichki dunyosi, insoniy kamoloti, farzandlik his va burchlarini qanday tushunishini to‘laroq ochishga, uning ideal shaxs sifatidagi qiyofasining mukammal tasvirlanishiga xizmat qiladi. B. Iskandarning o‘lim oldidan yo‘llagan maktub-vasiyati munosabati b-n doston syujetiga kiritiladi. Maktubda, umuman, N.ning ijodi u-n xos bo‘lgan motivlar: ota-onani e’zozlash, ularni hurmat etish, izzatlarini joyiga qo‘yib xizmat qilish har bir farzandning muqaddas burchi ekani samimiy va juda ta’sirchan bayon etiladi. Shunisi muhimki, maktub davomida katta saltanat sohibi bo‘lgan, hasham va shuhratga burkangan hukmdor emas, balki shaxsiy havas-intilishlari, sha’n-u shavkati yo‘lida farzandlik burchlarini bajara olmagan, o‘z qilmishlari b-n azob-uqubatlar yetkazgan oddiy o‘g‘ilning afsus-nadomatga to‘la uzrxohligi, onaga iliq mehr-u muhabbati old o‘ringa chiqadi:

Sangakim, buzulg‘on tanim jonisen,
Vujudim samin la’lining konisen.

Sanga aylabon xoki dargohliq,
Aning otin aytsam edi shohliq!

B. N. tasvirida irodali, yuksak farosatli va o‘qimishli, bilimdon ayol: u o‘zi tarbiyalab voyaga yetkazgan farzandi vafotidan og‘ir qayg‘uga tushadi, onalik muhabbatini yashira olmaydi. Jahongir o‘g‘lining vasiyatlari mohiyatini to‘la tushunib, ularga qat’iy rioya qiladi. Boshiga tushgan og‘ir musibatni, dard-u alamlarini mardona ko‘taradi, donishmand hakimlar b-n muloqotga kirishib, aql-u idrok b-n ish yuritadi. N. B.ni oilasi va farzandlariga mehribon, iffatli ayol sifatida tasvirlaydi. Uning “aso tutib, belini bog‘lab aza tutishi, o‘g‘li tobutiga murojaat etib: “Sendan burun men o‘lishim kerak edi”, deb fig‘on chekishi, “o‘kursam edi oq sochimni yoyib”, deb nolalar qilishi sharqona urf-odatlarga ishora etgandek tuyuladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – T., 2011.*

A.A.

BONIY – “F.Sh.” dostonidagi Farhodning ko‘ngil ochishi u-n Xoqon tomonidan bunyod etilgan Erammonand to‘rt qasrning tarhini chizgan me’mor. Xito mulkida o‘z ishining ustalari sifatida shuhrat qozongan B. va Moniylar aslida tug‘ishgan egizaklar bo‘lib, B. me’morlikda, Moniy esa naqqoshlikda zamonasining yagonasi edi.

Bo‘lub Boniyg‘a ul yanglig‘ mahorat –
Ki, sharhidin kelib ojiz iborat...

Kelib har ne bino ul qilsa bunyod,
Yiqilmoqdin falak qasridek ozod.

“S.I.” dostonida ham Iskandar Ya’juj va Ma’jujlarga qarshi devor yasash u-n dunyoning turli yerlaridan chaqirgan ustalarining birini B.ga nisbat beradi:

Qo‘pub yana ustodi Boniyhasab,
Qo‘yub toshni toshqa lab-balab.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий . ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

E.O.

“BOR EDI BIR MULK ARO DEVONAYE” – “L.T.” dostoni tarkibidagi mustaqil syujetli she’riy hikoyat shu misra b-n boshlanadi. Doston personaji Kufning:

Menki ganj ummedidin devonamen,
Kecha-kunduz sokini vayronamen, –

deya safarga chiqa olmaslik uzri munosabati b-n *Hudhud* tomonidan ibrat tarzida keltirilgan bu kichik hikoyatda xazina topish umidida umrini vayronalarni titkilab o‘tkazgan odam voqeasi bayon etiladi. Kunlarning birida omad unga yor bo‘lib “Qorun ganjidek qirq xum” xazina topadi, ammo bu boylikni ko‘riboq hushdan ayriladi, telba bo‘lib qoladi. Xazina yonidagi telbani ko‘rib qolgan bir yaramas kishi uni o‘ldirib, boylikka ega bo‘ladi. Hikoyat ibrat mazmuni va kinoya ohanglari ochiq ko‘rinib turgan quyidagi misralar b-n yakunlanadi:

Ko‘rmay ul majnunni mujrim chekti tig‘,
Qonini ganj uzra to‘kdi bedarig‘.

Ganj erdi umri oning voyasi,
Bordi ganji ustida sarmoyasi.

Keyingi misradagi “sarmoya” so‘zi “joni”, “hayoti” ma’nosida qo‘llanilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

A.A.

“BOR EDI DEVONAYI OLIY SIFOT” – “L.T.”dostoni tarkibidagi mustaqil syujetli tugal she’riy hikoyatlardan biri shu misra b-n boshlanadi. Hikoyat syujeti uncha murakkab emas: unda xalq orasida “Majnun al-haq” laqabini olgan “devona”, aslida, “oliy sifatlar” – yuksak fazilatlar sohibi bo‘lgan shaxsning “zaif” eshagiga minib haj qilish niyatida Makka safariga otlanishi, yo‘lda eshagini yo‘qotib, yana qayta topishi voqeasi bayon etiladi... Safar chog‘ida eshagini Xudoga topshirib (“Dedi: – Ey Allohim, eshakdin voqif o‘l!”), uyquga cho‘mgan devona uyg‘onsa, eshagi ko‘rinmaydi. U g‘azabga kelib, eshagining yo‘qolgani u-n Xudoga nola qila boshlaydi, shakkoklik b-n uni tergaydi. Shu payt bahor yomg‘iri vaqtidagi chaqmoq odatiy sokin atrof-tevarakni yoritib yuboradi va masalaga ravshanlik kiritadi: eshak biroz narida o‘tlab yurgan ekan. Xudoga ta’nasi noo‘rin ekanini anglagan “devona” biroz avvalgi gaplaridan afsuslanadi, g‘azabga kelish sabablarini izohlashga, Xudoga tushuntirishga intiladi, biroz xushomad ham qilib, Alloh sha’niga madhlar o‘qiy boshlaydi.

Devonaning avvaliga kuchli qahrga kelishi, g‘azablanishi, kinoya-kesatiqlar b-n ta’na va ayblov ohangida Yaratuvchiga ochiqdan ochiq hayqirishi qanchalik tabiiy, voqea rivoji, situat-

siya talabi va normal mantiq oqimi b-n qanchalik asoslangan va ishonarli bo‘lsa, eshagi yo‘qolmagani ma’lum bo‘lganidan keyingi uzri ham, kechirim so‘rab, Xudoga yalinib-yolborishi ham u b-n “yarashishga” talpinishi ham shunchalik samimiy va mantiqan asoslangandir. Bu hikoyat mazmuni, voqea rivoji, tugun va yechim tamoyillari, bayon ohangi va nihoyat, ayrim lavhalarning shartliligi b-n xalq og‘zaki ijodidagi yumorga boy ertaklarga juda o‘xshab ketadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Бертельс Е.Э. Избран. труды. Навои и Джами. – М., 1965. Суфизм и суфийская литература. – М., 1965.*

A.A.

“BOR EDI SHAXSE ARASTUG‘A MURID” – “L.T.” dostoni tarkibidagi mustaqil syujetli she’riy hikoyatning boshlanishi. Hikoyat doston personajlaridan birining ishq-muhabbat “ko‘nglini asir etgan”i va sevgilisidan biror daqiqa ham ayrila olmasligi va shu bois qushlar b-n birga safarga chiqa olmasligi uzri munosabati b-n Hudhud tilidan ibrat tarzida keltiriladi.

Hikoyatda bayon etilishicha, Arastuning Aflotun b-n bahslasha oluvchi donishmand tayyorlash maqsadida katta ixlos va umid b-n tarbiyalayotgan iqtidorli shogirdi bir go‘zal ishqiga “giriftor bo‘lib”, ko‘p harakat-intilishlar b-n unga uylangach, hamma narsani unutib, butun umrini u b-n o‘tkazadi, “kecha-yu kunduz ondin ko‘z olmayin”, tahsilni ham tark etadi. Bunday ahvoldan tashvishga tushgan Arastu:

Berdi istab ko‘p nasihat birla pand,
Bo‘lmadi pand ul balog‘a sudmand.

Ko‘rdi ilm-u hikmati zoye bo‘lur,
Necha yillik zahmati zoye bo‘lur.

Shogirdining ko‘zini ochish, majoziy ishqqa bu darajada berilishi xato ekanini ko‘rsatish maqsadida Arastu yashirincha choralar ko‘rishga majbur bo‘ladi. Oqibatda, ma’shuqasining go‘zalligi o‘tkinchi ekaniga qanoat hosil qilgan shogird “ustoddin xijil bo‘ladi”. Y.E.Bertels ta’kidicha, bu hikoyat tuguni Jaloliddin Rumiy “Masnaviy”sining birinchi hikoyatini eslatadi, ammo mavzu N.da batamom boshqacha ishlangan.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Бертельс Е.Э. Навои и Аттар. В. кн. Избр. труды. Суфизм и суфийская литература. – М., 1965.*

A.A.

BORIQI BARBARIY – N.ning “S.I.” dostonidagi Eron shohi Doroning pahlavonlaridan biri, epizodik obraz. B.B. asarning faqat bitta – 28-bobi voqealarida ishtirok etadi. Ma’lumki, ushbu bob Doro va Iskandar o‘rtasidagi hal qiluvchi jang tasviriga bag‘ishlangan. Ikki tomon qo‘shini bir-birining qarshisida saf tortgan paytda Iskandar qo‘shinidan bir kishi otilib chiqadi. Bu B.B. edi. N. uni shunday tasvirlaydi:

... Tarid aylay-u kirdi maydon aro,
Hunarlar ayon qildi javlon aro.

Solib bodpoyig‘a bargustvon,
Namudor aro o‘ylakim arg‘uvon.

Kiyib javshan ustig‘a chiniy harir,
Kelib suv uza sabzadek dilpazir.

Sinon o‘ng qo‘linda nechukkim sutun,
So‘l egnida qalqon kelib la’lgun.

O‘tog‘a tikib xudida savsani,
Bo‘lub g‘unchadin savsan ochmoq fani.

N. maydonga chiqib kelgan B.B.ni ulug‘vor arg‘uvon daraxtiga o‘xshatadi. O‘ng qo‘lidagi nayzasi ustunday, chap qo‘lida la’l tusli qalqon. Hay’ati ko‘rganga qo‘rquv soladigan mohir jangchi, sher jussali, pahlavon kelbatli.

Yetishmak hamon-u yetishgan zamon
Dilovar qo‘lidin yiqilmoq hamon.

Bu yanglig‘ to‘quz pahlavoni daler –
Ki, har bir edi ish chog‘i narra sher.

Bori Barbariyg‘a asir o‘ldilar,
Sinon zaxmidin dastgir o‘ldilar.

B.B. avval Doroning quli bo‘lgan, unga fidoiylik b-n xizmat qilgan, lekin sadoqatiga yarasha e’tibor ko‘rmagan. U bu to‘g‘rida Doroga aytganida, shoh quloq solmaydi. B.B. uning xizmatidan ketishini aytganda, podsho kaltaklashni buyuradi. Shundan so‘ng B.B. Doro saroyini tark etib, Iskandar tomonga yuzlanadi. Iskandar unga hurmat va e’tibor ko‘rsatadi. B.B.ning bugun birinchi bo‘lib maydonga chiqishining sababi shu bo‘lib, u birinchidan, Doroga o‘zining kimligini, shoh qanday kishining qadriga yetmaganini ko‘rsatmoqchi, ikkinchi tomondan, Iskandar qilgan inoyatlari u-n javob qaytarmoqchi. B.B. maydonga chiqqach, baland ovoz b-n yuqoridagilarni aytadi. Doro tomonidan unga qarshi Xarron degan jangchi chiqadi. B.B. u b-n urushib, nayza yordamida urib yiqitadi va bo‘ynidan bog‘lab, Iskandarning oldiga olib keladi. O‘zi esa yana maydonga qaytadi. Bu safar unga qarshi Xarronning qarindoshi Shayba jangga kiradi. B.B. uni ham yengadi. Shu tariqa u dushmanning to‘qqiz jangchisini mag‘lub etadi. Lekin shunda ham maydonni tark etmaydi. O‘ninchi bo‘lib unga qarshi maydonga tushgan Mag‘ribiy uni yengadi va asir oladi.

Dostondagi ushbu obraz va uning harakatlari izzat-nafsi tahqirlangan insonning nimalarga qodir ekanini namoyon qiladi. B.B.ning yuqoridagi ishlarni qilishiga sabab uning Doro tomonidan xo‘rlangani edi. Shu b-n birga N. inson o‘z kuchiga ortiqcha baho berishi kerak emasligini ham ko‘rsatadi. B.B.ning mag‘lubiyatga uchragani haqida u shunday yozadi:

Vale bo‘ldi Boriq ishi nursiz,
Ki, ko‘shish qilib erdi maqdursiz.
O‘zidek to‘qqiz kimsa olmish erdi,
Bu kirgan zamon ilgi tolmish erdi.

Iskandar Mag‘ribda chumolisifat maxluqlarga qarshi jang qilgan 63-bob oxirida B.B. yana paydo bo‘ladi. Gap shundaki, yakkama-yakka kurashda Iskandarning barcha nomdor pahlavonlarini mag‘lub etib, asir olgan vahshiylar xoni Lubati Chinga bas kelolmay mag‘lub bo‘ladi. Iskandarning o‘zini afv etgani evaziga u ham barcha asirlarini ortiga qaytaradi. Ular orasida esa B.B. ham bor edi. Ma’lum bo‘ladiki, Mag‘rib shohlari jang boshlaganlarida, pahlavon so‘rab murojaat qiladigan joy mana shu vahshiylar xalqi ekan.

B.B. N.ning epizodik obrazlar yaratishdagi mahoratini ko‘rsatuvchi yorqin misoldir

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Ўзбек адабиёти тарихи. 5 томлик, 2-том – Т., 1977. История узбекской литературы в двух томах. Том 1. – Т., 1982*.

A.A., E.O.

BOROVKOV Aleksandr Konstantinovich (1904, Toshkent – 1962, Leningrad). 1935-y.da “Uyg‘ur tili darsligi” u-n fan nomzodi ilmiy darajasi va prof. unvoniga sazovor bo‘ladi. 1928-y. da ToshDUning Sharqshunoslik fakultetini tugatgach, FA Til va adabiyot instituti aspiranturasida tahsil olgan (1932).

B.A.K. o‘zbek, uyg‘ur, qorachoy-bolqor singari tillarni tadqiq etishdan tashqari, turkiy tillar yodnomalari ustida ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Uning rahbarligi va ishtirokida “Ruscha-o‘zbekcha lug‘at”, “O‘zbekcha-ruscha lug‘at”lar tuzildi. O‘rta maktablar u-n o‘zbek tili darsliklari yaratildi.

B.A.K.ning n.shunoslikka qo‘shgan hissasi alohida diqqatga sazovor. 1940 y.da N.ning ko‘p jildlik asarlari nashr etilmagan, arab yozuvidagi asarlari jamuljam qilinmagan bir paytda turli mamlakatlar kutubxonalarida yoki ayrim shaxslar qo‘lida saqlanayotgan, lotin alifbosi-

dagi yozuvda esa faqat “Ch.D.”, “F.Sh.” kabi asarlarigina chop qilingan bir sharoitda u eski qo‘lyozmalardan, turkcha nashrlardan, xorijiy adabiyotlardan foydalanib, N.ning hayoti va ijodiy faoliyatini, xususan, asarlarining turli xususiyatlarini, eski o‘zbek adabiy tilini yaratish borasidagi xizmatlarini tavsif va tadqiq qilgani buyuk jasorat edi. Olim N. tavalludining 500 yilligi munosabati b-n 1940-y.da “Alisher Navoiy”, “Alisher Navoiy hayoti va ijodining o‘rganilishi” maqolalarini nashr qildirdi. B.A.K.ning “Alisher Navoiy o‘zbek adabiy tilining asoschisi sifatida” nomli katta ishi ham 1940-y.da yozilgan va faqat 1946-y.da ilmiy to‘plamlardan birida chop etilgan. Mana shu asar nafaqat o‘zbek, balki jahon n.shunosligida ham ulug‘ shoir asarlari tili bo‘yicha yuqori ilmiy saviyada yozilgan ish deb tan olindi va turk tiliga tarjima etilib, 1954-y.da Anqarada nashr qilindi. Darhaqiqat, ushbu ish N. davridagi tarixiy va adabiy jarayonga oid materiallarni keng qamrab olgan holda N. asarlari tili b-n hozirgi jonli turkiy tillar va ularning shevalariga oid faktlarni qiyosiy-tarixiy usulda o‘rganib, haqiqatan ham N. o‘zbek adabiy tilining asoschilaridan biri ekanini ishonarli tarzda yoritib bergani jihatdan maqtovga loyiqdir.

Olim N.ning turkiy adabiyotga asos solganini yaqqol his etgan, shu tufayli ham u “L.T.” dostonida:

Turk nazmida chu men tortib alam,
Ayladim ul mamlakatni yakqalam, –

deb faxrlanganini qayd etadi. Ulug‘ shoirning ona tilida yozgan barcha asarlari eski o‘zbek adabiy tilini yaratish u-n kurashganidan dalolat beradi. Haqiqatan ham, “M.N.” asarida, shoirning o‘zi ko‘rsatib o‘tganidek, o‘sha davrdagi 90 nafar shoirdan faqat 16 nafarigina turkigo‘y bo‘lib, Sulton Husayn Boyqaro zamonida forsiy til adabiyotda hukmron edi.

Sayyid Hasan Ardasher ko‘rsatganidek, N. ning o‘zi ham ikki tilda, ya’ni turkiy va fors tillarida ijod qilgan. O‘z ona tiliga bo‘lgan muhabbat shoirni “M.L.” asarini yozishga undagan va u bu asarda ingramoq, singramoq, siqtamoq singari fe’l turkumiga oid yuz so‘zni keltirib, fors tilida bularning “mazmuni bo‘lmag‘ay”, deydi va shu tarzda, juda ko‘p dalillar asosida, turkiy adabiyotning rivojlanishi u-n turkiy til nihoyatda keng imkoniyatlarga ega ekanini aniq ko‘rsatib bergan.

B.A.K. Zahiriddin Muhammad Boburning N. tili Andijon shevasiga mos kelar edi, degan fikrini tahlil qilar ekan, N.I.Ilminskiyning 1862-y.dayoq jonli xalq lahjasida o‘zlashma (arabcha, forscha) so‘zlar N. asarlaridagidek ko‘plab uchrashi mumkin emas, degan fikrini quvvatlaydi va V.V.Bartoldning N. Andijonda bo‘lmagan, degan fikriga va o‘z shaxsiy kuzatishlariga asoslanib, N. yaratgan adabiy til Andijon shevasiga to‘la ravishda mos kelishiga asos yo‘q, deb hisoblaydi. B.A.K. qayd etganidek, N. yaratgan adabiy til juda murakkab bo‘lib, u, avvalambor, N.dan avvalgi adabiy an’ana b-n bog‘liqdir. Bu borada shu narsa aniqki, mo‘g‘ullar istilosidan keyin Markaziy Osiyoda eski uyg‘ur tili adabiy til sifatida muhim rol o‘ynadi. Biroq B.A.K. ta’kidlaganidek, N. yaratgan adabiy til u-n eski uyg‘ur tili asos bo‘lgan emas. Shoir o‘z ona tilini “turkiy”, “turkiycha”, deb atadi. U “sart” so‘zini tojik ma’nosida qo‘lladi.

N. asarlarida qipchoq, qiyot, barlos, qo‘ng‘irot, jaloyir, mang‘it kabi qabila nomlari uchrasada, – deb yozadi B.A.K. – biz bu qabilalar lahjasi haqida ma’lumotga ega emasmiz. Faqat hozirgi o‘zbek sheva, dialektlariga asoslanib, ulug‘ shoir yashagan davrda ham turli lahja va shevalar mavjud bo‘lgan, deya olamiz.

B.A.K. chig‘atoy tilining tovushlar tarkibini aniqlashda K.K.Yudaxin (q.) nihoyatda original yo‘l tutib, Amiriy, Lutfiy (q.) va boshqa shoirlarning tuyuqlarini tahlil qilganini hamda XV–XIX asrlardagi o‘zbek tili hozirgi singarmonizmsiz oltita unli tovushga ega bo‘lgan shahar tipidagi o‘zbek shevalariga yaqin turadi, degan fikriga e’tiroz bildiradi. B.A.K. davr va jug‘rofiy jihatdan farqlanadigan shoirlar tuyug‘i bo‘yicha bu xil xulosaga kelib bo‘lmaydi, – deydi.

N. asarlari tilida *i, u, u, e, yo, o, a, a,* unlilari bor, *i* unlisining til orqa jufti yo‘q, shunga ko‘ra shoir yaratgan adabiy tilni hozirgi o‘zbek dialekt-

lariga qiyoslasak, uni singarmonizm – tovushlar uyg‘unligi qonuniyatini yo‘qotgan, o-o, u-u unlilari farqlanadigan oraliq (aralash) shevalar deb hisoblash mumkin. Darhaqiqat, o‘zbek adabiy tili o‘zbek shevalari b-n chambarchas bog‘liq bo‘lib, B.A.K. to‘g‘ri ta’kidlaganidek, N. asarlari tiliga xos fonetik va morfologik xususiyatlar faqat o‘zbek shevalaridagina mavjud. Demak, shoir o‘z asarlarida o‘sha o‘zbek shevalari guruhidan biriga asoslangan. Shu tufayli B.A.K.ning jonli o‘zbek shevalarini mufassal o‘rgangandan keyingina N. asarlarining til xususiyatlarini to‘la-to‘kis yoritish mumkin, degan fikri ham diqqatga sazovor.

B.A.K. N. asarlari tilidagi o‘g‘uz lahjasi elementlarini maxsus tahlil qilib, bo‘l (bo‘lmoq) o‘rnida o‘l (o‘lmoq) fe’lining qo‘llanishi hamda qilmamish (qilmagan), boruram (borarman), qilmam (qilmayman), topa olmam (topa olmayman) singari fe’l shakllari mavjudligini dalillar orqali aniq ko‘rsatib beradi. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida ham o‘g‘uz an’anasisi borligini eslatib, N. asarlari tilida uchraydigan o‘g‘uz elementlari Xorazm adabiy an’anasi ta’sirida vujudga kelgan bo‘lishi mumkin, chunki shoirning o‘zi qayd etganidek, Xorazmda xorazmcha turkiy til bo‘lgan. “Mavlono Husayn Xorazmiy... xorazmiycha turkiy til... b-n bitibdur”, deydi.

N. haqida quyidagi maqolalarni yozgan: 1. N. hayoti va ijodining o‘rganilishi; 2. Alisher Navoiy; 3. N. she’rlarining fonetik tahlili; 4. N. she’rlarining talaffuzi; 5. N. o‘zbek adabiy tilining asoschisi; 6. Chig‘atoy lug‘atlarida an’anaviy leksikografik tamoyillarining aks etishi.

B.ning n.shunoslikdagi yana bir ulkan xizmati N. asarlari bo‘yicha tuzilgan lug‘atlar ustida ilmiy ish olib borgani, chig‘atoy tili lug‘atlaridagi qadimgi leksikografik an’anasini o‘rganishga, tadqiq qilishga bag‘ishlangan asarlar yozganidadir. Haqiqatdan ham B.ning “Chig‘atoy til lug‘atlaridagi leksik-grafik an’anasi” (1958), xususan, “Badoye’ al-lug‘at” (q.) – N. asarlari bo‘yicha Tali Imoni Hirotiy tuzgan lug‘atni o‘nlab boshqa lug‘atlarda qiyoslab nashr qildirishning o‘ziyoq (1961) eski o‘zbek tilini o‘rganish ishini yangi bir bosqichga ko‘tardi va bu tilning fundamental lug‘atlarini tuzish u-n zamin tayyorladi.

Ad.: *Алишер Навои (к 500 летию со дня рождения). СВ, 1, 1940; Изучение жизни и творчества Алишер Навои. Сб. “Родоначальник узбекской литературы”. – Т., 1940; Алишер Навои к основоположник узбекского литературного языка. Сб. “Алишер Навои”, М.–Л, 1946; Навои и Джами в народном предании. Изв. 1947; лексикографическая анъанаси в словарях чагатайского языка. Сб. “Материалы первой научной конференции востоковедов в г. Ташкенте 4–11 июня 1957 г., – Т., 1958; “Бадоеъ ал-луғат” словар Тали Имании Гератского к сочинениям Алишера Навои – М., 1961.*

Ab.H.

BOSIM ATALAY (1882–1965) – turk olimi. N. asarlari asosida yozilgan birinchi grammatika Mirza Muhammad Mahdixonning “Maboni ul-lug‘at” asarining Istanbuldagi Sulaymoniya kutubxonasida saqlanayotgan nusxasining faksimil nashrini amalga oshirgan. So‘zboshida N. tilini o‘rganishda ushbu grammatikaning ahamiyatini ko‘rsatib bergan. 1970-y. Anqarada “Abushqa” lug‘atining tanqidiy matnini nashr etgan. Tayanch nusxa sifatida Fotih kutubxonasidagi qo‘lyozmani olgan.

Ad.: *Mirza Mehdi Mehmet Han: Seng-lah-lugat-i Nevai. – Istanbul, 1950; Abuşka Lugati veya Çağatay sözlügü. Hazirlayan: Bəsim Atalay. – Ankara, 1970.*

E.U.

BOTU (taxallusi; asl ismi Mahmud Hodiyev, 1904–1938, Toshkent) – shoir, jurnalist. B. o‘zbek-arab alifbosini lotin grafikasi asosidagi alifboga almashtirish tashabbuskorlaridan bo‘lgan (1920). Tilshunoslik va adabiyotshunoslik masalalariga oid bir qator maqolalar muallifi. B. 1930-y.da nohaq ayblanib, qamoqqa olingan va qatag‘on qurboni bo‘lgan.

1919-y.da “Chig‘atoy gurungi” N.ning rasmini birinchi marta matbuotda bosib chiqaradi. B. buni: “Xayoliy bir surat bo‘lsa kerak, chunki bu rasm, qiyofat ul-bashar (fiziognomika)da aytilishiga ko‘ra, nozik tabiat, hassos, zarif va basiratli odamning suratiga o‘xshamaydi. Semiz, beg‘am, dudog‘i qalin, barcha narsaga loqayd qaraydigan shaxsni eslatadi”, deya e’tiroznamo fikr bildirgan. Uning odatlaridan biri hazrati N.ning:

Xarobat aro kirdim oshiftahol,
May istarga ilgimda singan sofol,

baytini qayta-qayta o‘qishni yaxshi ko‘rardi.

B. Moskvada o‘qib turgan chog‘lari (1921–1927)da ham N.ni ko‘p mutolaa qilib, uni adabiyotimiz faxri, deb buyuk hurmat b-n tilga olardi.

B. N. tashbehlarini, g‘oyatda sevar, mumtoz adabiyotimiz namoyandalarini hurmat qilardi. N. dan boshlab Lutfiy, Boyqaro, Binoiy, Sakkokiy, Furqat, Ado, Xotif kabilarni hamisha og‘zidan qo‘ymasdi.

Ko‘rganmi sendek shoirni asring,
Ma’noga manba har nazm-u nasring.

She’ringda bo‘lgan nozik ma’nolar,
Ko‘p tuyg‘ularni har vaqt davolar.

misralari shoirning “Navoiyga” deb atalgan she’ridandir.

B. N.ning ona tili u-n kurashini tasvirlovchi maxsus she’r yozgan. Shoir bu she’rida “M.L.” asari ma’lumotlaridan kelib chiqib, o‘z ona tilining boy zaminlarini ta’kidlovchi, uning ravnaqi yo‘lida fidoyi bo‘lgan donishmand bir siymoni gavdalantiradi. B. o‘z o‘quvchilariga murojaat qilib ularni o‘sha ona tilining haq-huquqlari u-n kurash fidoyisi b-n tanishtiradi:

Bir zamonlar elimiz
Qorong‘uda qolmishdi.

Bu choqlarda tilimiz
Yorli ism olmishdi.

“U kishi kim?” desangiz,
Aytib beray, o‘rtoqlar.

U kishini bilsangiz,
Buyuk shoir Navoiy.

Shuning uchun, bolalar,
Navoiyni sevaylik.

Navoiyning otini
Oltin bilan yozaylik.

U kishi kim desangiz,
Aytib beray o‘rtoqlar”

Ad.: *Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Боту, Танланган асарлар. – Т., 2004; Боту. Ёз куни: шеърлар, достонлар, ҳикоя ва мақолалар. – Т., 1980.; Шарипов Б., Шоир ва жамоатчи. – Т., 1989.*

S.O‘.

BOQIY VA BOQIR – Turkiy xalqlar adabiyotidagina emas, Sharq she’riyatida muammo janrining yetuk namunalarini ijod qilgan N.ning “N.Sh.” devonida 52 ta muammo bor. Mazkur devondan o‘rin olgan 3-muammo “Boqiy va boqir” so‘zlariga bag‘ishlangan:

Jannat guli-yu nasrinig‘a bo‘lsang mushtoq,
Gah yor yuziga, gah kafi poyig‘a boq.

Ushbu muammoning yechimi shundayki, ilk misrada shoir ilgari surayotgan mazmun ifodalangan bo‘lib, jannat guli yoki nasrinini ko‘rishga mushtoqlar uning keyingi misradan izlasin. Ya’ni, ikkinchi misra oxiridagi “Boq” kalimasi axtaruvchiga – mushtoqqa yo‘l ko‘rsatadi: o‘sha misraning o‘zidagi “Yor” lafziga ishora etish b-n o‘quvchini nazarda tutgan ma’noga yetaklaydi. Agar “Yor” so‘zining yuziga – birinchi harfiga “boq”sak, “Boq + Y” bo‘ladi, “Yor”ning kafi poyiga – oyoq tomoniga “boqsak”, “Boq + R” bo‘ladi. Yor – mahbubaning qizilga moyil yuzlari jannat guliga,

oyoqlarining kafti esa oq nasringa o‘xshaydi. N. bu yerda jannat gullarining go‘zalligi-yu ranglardagi uyg‘unligini diqqatga olish b-n badiiy-estetik zavq uyg‘otishga erishgan hamda yashirin tashbehning betakror namunasini yaratgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2011.*

S.O‘.

BISTOMIY BOYAZID (taxallusi; to‘liq ismi: Boyazid Tayfur ibn Iso Sarushon al-Bistomiy) (801 – Bistom – 875) – tariqat piri, tayfuriya silsilasi asoschisi.

Nishopur, Ray, Hamadon, Iroq, Shom va Arabistonga safar qilib, Ja’far Sodiq, Zunnun Misriy, Junayd Bag‘dodiy, Ahmad Xadraviya, Abu Hafs Haddod, Yahyo Muoz, Shaqiq Balxiy kabi taniqli tariqat pirlari b-n yaqin aloqada bo‘lgan. Tasavvuf taraqqiyotida katta rol o‘ynagan bu buyuk so‘fiy “Sulton ul-orifin” (“Oriflar sultoni”) va “Burhon ul-muhaqqiqin” (“Tahqiq ahli hujjati”) faxriy unvonlari b-n ulug‘langan. N. “N.M.” tazkirasida yozishicha, B.B. namoz o‘qiganida, Alloh taolodan qo‘rquvi va shariat hurmatidan, hatto ko‘ksining suyaklari nola qilar ekan. Unga bir valiylik eshigi ochildikim, mazhab namoyon bo‘lmadi, deydi yana.

“H.A.”ning iymon sharhiga bag‘ishlangan birinchi maqolatida N. B.B. b-n bog‘liq mashhur rivoyatni keltiradi. Unga ko‘ra, g‘amgin o‘tirgan pirdan muridi buning sababini so‘raydi. Pir esa dunyoda el ko‘p-u ularning hammasini kishi, deb bo‘lmaydi tarzida javob qaytaradi. Muridning o‘zing ham shunga mansub emasmisan, degan navbatdagi savoliga esa:

Bo‘lmasa imon bila ketmak ishi,
Anglaki, oni desa bo‘lmas kishi, –

deb javob beradi

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Боязид Бистомий. “Илоҳий мулоқот”дан (Ҳ.Болтабоев тарж.) // Ислом тасаввуфи манбалари. – Т., 2005; Боязид Бистомий. Рубоийлар // Донишмандлар туҳфаси. – Т., 2009.*

E.O., M.X.

BOLTABOYEV Hamidulla Ubaydullayevich (29.08.1954, – Andijon) – adabiyotshunos, fitratshunos olim. Andijon shahrida ziyoli oilasida tug‘ilgan. ToshDU (hozirgi O‘zMU)ning filologiya fakultetini tamomlagan. O‘zbekiston Milliy universiteti prof. 1983-y.da “Hozirgi o‘zbek nasrida uslubiy izlanishlar” mavzuida nomzodlik, 1996-y.da “XX asr boshlari o‘zbek adabiyotshunosligi va Fitratning ilmiy merosi” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan. 18-mart universiteti (Chanoqqal’a, Turkiya) faxriy doktori (2009). Xalqaro Estetika va erkin san’at ijtimoiy akademiyasi (Rossiya FA, 2011), Yevropa Xalqaro Gumanitar forumi (2014), Ch.Aytmatov nomidagi Issiqko‘l forumi (2018) a’zosi.

Olim “Fitratning ilmiy merosi” (1996), “Fitrat – adabiyotshunos (1996) monografiyalari orqali XX asr boshlari o‘zbek adabiyotshunosligida N. merosining o‘rganilishi masalalariga to‘xtalib, Fitratning n.shunos sifatidagi faoliyatiga baho bergan. Uning “Mumtoz so‘z qadri” (2004) monografiyasiga N.ning “T.A.H.”, “N.J.” singari asarlariga doir tahliliy maqolalari ham kiritilgan. “Islom tasavvufi manbalari” (2005) kitobidan esa buyuk mutafakkirning “S.Z.”, “N.M.” asarlari sharhini ham kiritgan.

Olimning “Sharq mumtoz poetikasi” (2006, 2008) kitobi ilmiy jamoatchilik tomonidan yuksak e’tirofga erishgan. Unda N.ning “X.”, “M.A.”, “M.L.” asarlariga ham e’tibor qaratilgan. “Adabiy-estetik tafakkur tarixi” (2-kitob, 2016) kitobida jahon estetik tafakkuri tarixida N. qarashlarining ahamiyati asoslanib, Dante, Shekspir, Rable singari Yevropa Uyg‘onishi va-

killarining estetik merosi b-n o‘zaro qiyoslangan.

B.H.U. tomonidan tartib berilgan “Adabiyot ensiklopediyasi” (2015, 2019)dan ulug‘ shoirning adabiy va ilmiy merosiga oid 50 dan ortiq maqolalar o‘rin olgan.

“O‘zbek adabiyotshunosligi tarixi” (2019) qo‘llanmasida o‘zbek mumtoz adabiyotshunosligining shakllanishi u-n N. ijodiy merosi asos bo‘lgani isbotlangan bo‘lsa, “Jahon adabiyotshunosligi tarixi” (2020) darsligida N.ning adabiyotshunoslikka oid qarashlari o‘rta asrlar Sharq va G‘arbiy Yevropa Uyg‘onish davri manbalari b-n qiyosan tahlil qilingan.

Olim ulug‘ shoirning 20 dan ortiq g‘azallariga sharhlar ham yozgan (“Guliston” jurnali, 2016–2020).

B.H.U. 20 ga yaqin monografiya, darslik , darslik-qo‘llanmalar hamda 500 dan ortiq ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar muallifidir.

Ad.: *Алишер Навоий. ТАТ. 10 жилдлик, 1-10-жилдлар. – Т., 2011; Форсигўй Навоий Фитрат талқинида // Шарқ машъали. 1993. 1-3-сон; Темурийлар даври адабиёти Фитрат талқинида // Ўзбек тили ва адабиёти. 1996. 4-сон; Алишер Навоийнинг “Сабъаи сайёр” достонида еттиликлар симметрияси. Андижон Давлат университети: Илмий хабарнома. 2012. 1-сон; Туркий тазкираларда Алишер Навоий сиймоси // Жаҳон адабиёти. 2013. 2-сон; Алишер Навоийнинг илк юбилейи // Жаҳон адабиёти. 2016. №2; “Макорим ул-ахлоқ”да Навоий сийрати.*

M.A.

BOTMON – og‘irlik o‘lchovi. O‘tmishda Markaziy Osiyo hududida asosiy o‘lchov birliklari qatorida qo‘llanilgan. Aniq miqdori, bir botmonning necha qadoq yoki necha pud ekani xususida turli ma’lumotlar mavjud. O‘zbek tilining izohli lug‘atida B. *898, 5 g.* ga teng, deb ko‘rsatilgan. Shuningdek, O‘zbekistonning turli yerlarida turli salmoqqa ega ekani, ikki puddan o‘n bir pudgacha bo‘lgan miqdorni anglatishi qayd etilgan.

B. N. asarlarida ham og‘irlik o‘lchovi birligi sifatida uchraydi. “V.” asarining “Ravotib” qismida fuqaro va miskinlarga tarqatiladigan taomlar hamda ular u-n lozim bo‘lgan bug‘doy, go‘sht va boshqa masalliqlarning miqdori ko‘rsatilgan. Bu o‘rinda ularning barchasi botmon hisobida ko‘rsatilgan. Jumladan, ro‘za oyida va iydida tayyorlanib, xaloyiqqa ulashilgan ehson miqdori haqida shunday deyiladi: “Ro‘za oyida har kecha o‘n besh botmon bug‘doy, besh botmon poludoyi dushobdin yo mavizobdin o‘ttiz taboq... Ro‘za iydida o‘tmak yuz botmon, halvo ellik botmon”.

Qurbon iydida tayyorlanadigan va odamlarga tarqatiladigan taom va unga ketadigan masalliq ham xuddi shu tarzda botmon hisobida qayd etilgan: “Ikkinchi kuni yigirma botmon et bila yigirma botmon bug‘doyni halim qilib, ellik botmon o‘tmak bila qismat qilg‘aylar”.

Ushbu og‘irlik o‘lchovi o‘sha davrdagi boshqa manbalarda ham uchraydi. M-n, Bobur o‘z asarida Faridun Husayn mirzoning o‘qni yaxshi otishini qayd qiladi va “Kamon guruhasini derlarkim, qirq botmon ekandur”, deb yozadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Вақфия. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томлик. 1-том. – Т., 2006; Заҳириддин Муҳамамад Бобур. Бобурнома. – Т., 2002.*

Q.E.

BOKIY (Taxallusi; to‘liq ismi: Mirzaabdulla Nasriddinov) (1882–1967, Farg‘ona) – shoir, olim, tarjimon, xattot. O‘zR FA muxbir a’zosi (1943). Roshidon shahri (hozirgi Rishton tumani) da bog‘bon oilasida tug‘ilgan. U dastlab maktabda, so‘ng otasi Mirzo Nasriddin va amakisi Mirzo Oxunddan ta’lim olgan. Iste’dodli so‘z san’atkori bo‘lishi b-n birga zabardast olim-u ulamo, katta mudarris ham bo‘lgan ustozi Muhammadqul Muhayyirdan she’riyat sir-asrorlarini o‘rganadi. Uzoq yillar xon saroyida mirzaboshi vazifasida xizmat qilgan Muhayyir 40 yoshida xondan ruxsat olib, Roshidonning Oqyer qishlog‘iga ko‘chib kelib, umrining oxirigacha ijodini to‘xtatmagan holda so‘fiyona kun kechirgan edi.

Firdavsiy, Xoqoniy, Nizomiy, N., Bedil, Fuzuliy kabi buyuk shoirlar ijodini chuqur o‘rgangan B. Sharq mumtoz adabiyotini chuqur bilganligi tufayli xalq orasida navoiyxon, bedilxon degan nom olgan. Muqimiy, Nodim Namangoniy, Rojiy Marg‘iloniy va Rojiy Xo‘qandiylar b-n o‘tkazilgan mushoiralarda qatnashgan.

B. o‘zbek va fors-tojik tillarida mahorat b-n qalam tebratgan zullisonayn shoir ham edi. Shoirning bizgacha yetib kelgan katta she’riy meroslaridan bir qismi “Oqsoqollar kalomi” (1979) nomli to‘plamdan joy olgan. B. she’riyatining rang-barang qirralarini ko‘rsatuvchi bu 18 ta she’rda turli janrlar qamrovini ko‘rish mumkin.

1938-y.da N. tavalludining 500 yilligini o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish qo‘mitasining ilmiy maslahatchisi etib saylangan. Shu munosabat b-n u “Minnatdorlik” nomli g‘azal yozadi:

Roshidon yo‘lida yotgan bir siqim tuprog‘ edim,
Yog‘durib ehson bulutin, gulshan insho qildilar...
Yo‘qlabon, ya’ni Navoiy xoniga mehmon etib,
Hurmatu e’zoz ila rutbamni bolo qildilar.

Qo‘mitada u, asosan, N. asarlarini eski o‘zbek yozuvidan joriy alifboga o‘tkazishga ko‘maklashgan (1938–1940). “Ch.D.” va “H.A.”ni nashrga tayyorlash va ularga izohlar tuzish ishida ishtirok etadi. 1939-y.da N.ning “T.A.” qasidasini forschadan o‘zbekchaga tarjima qilgan.

Tarix, til va adabiyot institutida bosh maslahatchi bo‘lib ishlagan (1940–1943).

N. adabiy merosi B. faoliyatida muhim o‘rin tutadi. U o‘ziga fors tilidan olingan ingrovchi, yig‘lovchi ma’nosidagi B. taxallusni tanlaganini ham N. ijodidan qattiq ta’sirlanganini b-n izohlaydi. Zero, g‘azalni teran anglagan odamgina yig‘laydi. U buyuk salafining “Qomating”, “O‘ldi yana” radifli g‘azallariga tatabbu’ qilgan, “O‘zgacha” radifli g‘azaliga taxmis bog‘lagan.

Ma’lumki, 1939-y.da katta Farg‘ona kanali qurib bitkaziladi. Mamlakat hayotidagi ana shu katta ijtimoiy voqea tufayli shoir ko‘nglida qaynab-jo‘shgan zavq-u hayajonni buyuk salafining mashhur g‘azaliga ayni kayfiyatni aks ettiruvchi zamonaviy ruhdagi taxmis bog‘lash b-n ifodalaydi:

Davlati feruzimiz topti kamol o‘zgacha,
G‘ayrat ila qazdi ul yangi kanol o‘zgacha,
Shodlig‘ aylab tuzung bazmi visol o‘zgacha,
Vahki, chamandin yana esdi shamol o‘zgacha.
Har dam o‘lur atridin ko‘ngluma hol o‘zgacha.

Bu muxammasnavislik tarixida o‘ziga xos yangilik edi (B. tomonidan qo‘llangan bu novatorlikni keyinchalik Omon Matjonning Ogahiyning mashhur “Ustina” radifli g‘azaliga bog‘lagan zamonaviy taxmisida ko‘ramiz).

B. g‘azal mulki sultonining 9 baytlik g‘azaliga zamon b-n bog‘liq holda taxmis bog‘labgina qolmay, oxirida o‘zidan bir bayt-u band qo‘shadi – natijada 9 baytlik g‘azal asosida 10 bandlik muxammas vujudga keladi. U o‘zidan qo‘shgan band mana bu:

Necha bu gulshanda bor bulbuli dastonsaro,
Har biri shirinsuxan shoiri nozikado,
Yangi kanol suvin madhiga aylab havo,
Bokiyi parvona ham bo‘ldi Navoiy navo,
To‘tiyi nutqindadur lutf-u maqol o‘zgacha.

B.ning ustozi g‘azallariga tatabbu’lari ham o‘ziga xos ohorliligi b-n ajralib turadi. Jumladan, “O‘ldi yana” radifli g‘azalida N. ishq iztiroblarini tasvirlasa, xalafi baxt va bahor kayfiyati baxsh etgan zavq-u shavqni ifodalaydi.

N.:

Ohkim, jon bo‘ynig‘a zulfung tanob o‘ldi yana,
Kecha tong otquncha ishim pech-u tob o‘ldi yana.

B.:

Yuz tashakkur, baxt-u davlat bizga yor o‘ldi yana,
Xasta ko‘ngulga madad, jonga mador o‘ldi yana.

B. o‘z tatabbu’sida vazn (ramali musammani mahzuf) va radifni saqlasa-da, qofiya tartibni yangilaydi.

N.ning “Qomating” radifli g‘azaliga tatabbu’ o‘laroq bitgan g‘azalidagi:

Qaysi bir husn-u safo imo adosin vafs etay,
Yo yuzung, yokim ko‘zung, yo qoshlaring,
yo qomating? –

bayti buyuk salafining mashhur:

Ko‘z birla qoshing yaxshi, qabog‘ing yaxshi,
Yuz birla so‘zing yaxshi, dudog‘ing yaxshi.
Eng birla menging yaxshi, saqog‘ing yaxshi,
Bir-bir ne deyin, boshdin-ayog‘ing yaxshi.

ruboiysini ham esga solib yuboradi

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Бокий. Оқсоқоллар каломи. – Т., 1979.*

E.O.

“BOQIY VASIYATNOMALAR” – B.Rajabovaning N. ijodiga bag‘ishlangan kitobi. Mazkur kitobda Temuriylar Renessansining ulug‘ shoiri, buyuk mutafakkiri va davlat arbobi N.ning “X.”, “X.M.”, “M.N.”, “N.M.”, “V.”, “T.M.A.”, “M.Q.” asarlarida olg‘a surilgan muhtasham g‘oyalar, tasvirlangan tarixiy siymolar, badiiy obraz va timsollar tahlil etilgan. Uning moliyaviy ibodati, mulk haqidagi qarashlari, ayrim fazilat va qadriyatlar haqidagi talqinlari hamda badiiy mahorati, boqiy vasiyatnomalari, so‘z muddaolari, ko‘ngil b-n bog‘liq ifodali tasvirlari, ijod, madaniy muhit, fanlar tizimi, ma’rifat, bunyodkorlik b-n bog‘liq masalalar ijtimoiy fikr va poetik talqin mezonida tadqiq etilgan.

Kitobda yana o‘z davrida N.ning sharafli nomi zikr qilingan Sulton Husayn Boyqaro “Risola”si, Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston”, Amir Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro”si kabi qimmatli adabiy manbalar va atoqli rus adibasi Lidiya Batning N. hayoti va ijodiga bag‘ishlab mahorat b-n yozgan “Hayot bo‘stoni” (1948) romani xususida ham fikr yuritilgan

Ad.: *Алишер Навоий. Вақфия. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ражабова Б. Боқий васиятномалар. – Т., 2022.*

M.A.

BOQIRG‘ONIY SULAYMON (t.y.n. – Xorazm, 1186) – tariqat piri, mutasavvif shoir. Turkiy xalqlar orasida Hakim ota nomi b-n shuhrat qozongan B.S. Xorazmning Boqirg‘on degan qasabasida dunyoga kelgan. Yassaviya maktabining eng zabardast va eng mashhur namoyandasi bo‘lgan bu buyuk vatandoshimiz tariqatda ham, she’riyatda ham Ahmad Yassaviy an’analarining davomchisi bo‘lgan.

N. “N.M.” tazkirasida yozadi: “Ota Sulaymondur va Xoja Ahmad Yassaviyning murididur. Hamonoki, bir kun tabxe (taom) buyurg‘ondurlarki, matbaxiy (oshpaz) o‘tun yetmaydur, deb kelgandur. Alar as’hobg‘a degandurlarki, yozi(dasht)din o‘tun terib kelturung! Va ul zamon yog‘in yog‘adur ekandur. As’hobkim, o‘tun teribdurlar, alar xizmatig‘a kelguncha yog‘in jihatidan o‘tunlar ho‘l bo‘lg‘ondur. Hakim ato tergan o‘tunlarini to‘nig‘a chirmab, quruq kelturgandur. Xoja Hazratlari degandurlarki: “Ey farzand, hakimona ish qilding!” va alarg‘a bu laqab ondin qolg‘ondur. Va Hakim atog‘a hikmat tili go‘yo bo‘lubdur. Andoqki, oning favoidi (foydalari) atrok (turkiy xalqlar) orosida mashhurdur. Ul jumladan biri budurkim:

Tiki turg‘on to‘badur,
Borgonlarni yutadur.
Borg‘onlar kelmas bo‘ldi,
Magar manzil andadur.

B.S. tarjimayi holiga oid ma’lumotlar juda oz. N.ning “N.M.”, Ali Safiyning “Rashahot”, Shayx Zinda Alining “Samarot ul-mashoyix” tazkiralari, shuningdek, noma’lum mualliflar tomonidan yozilgan va XIX asrda til o‘zgarishlariga uchrab bizgacha yetib kelgan “Hakim ota risolasi”da shoir to‘g‘risida ayrim ma’lumotlar keltirilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Сулаймон Боқирғоний. Боқирғон китоби. – Т., 1991; Аҳмад Яссавий. Сулаймон Боқирғоний. Ҳикматлар куллиёти. – Т., 2011; Фахруддин Али Сафий. Рашаҳот. – Т., 2003; Очилов Э. Гавҳар янглиғ ҳикматлар // Барҳаёт сиймолар. – Т., 2012.*

E.O., E.Q.

BOG‘I JAHONARO – Hirot shahridagi podshoh qarorgohi. Sulton Husayn Boyqaro tomonidan 1470-y. qurila boshlagan. Umumiy maydoni 440 jerib (1 kvadrat kilometr)ni tashkil etgan. Ichida to‘rtta ko‘shk-qasr, katta maydon, hovuz hamda tir (o‘q otish mashq qilish joyi) bo‘lgan.

Sultonning boshqa bog‘lari va qasrlari ham bo‘lsa-da, B.J. uning asosiy rezidensiyasi hisoblangan va saltanatining so‘nggi yillariga qadar uning rasmiy qarorgohi va yashash joyi bo‘lib xizmat qilgan. Tabiiyki, beklar, vazirlar, davlat arboblari va a’yonlarining, shu jumladan, N.ning ham ko‘p vaqti B.J.da o‘tgan, faoliyati shu yer b-n bog‘liq bo‘lgan. Shoh huzuridagi rasmiy kengash, devon majlislari, elchilarning qabul marosimlari va boshqa tadbirlar ham, asosan, B.J.da o‘tgan. N. o‘z asarlarida ko‘p tilga olgan adabiy majlis, turli ko‘ngilochar yig‘in va ziyofatlar ham shu bog‘da uyushtirilgan va N. ularda ishtirok etgan. Vosifiy o‘z asarida ana shunday ziyofatlarning biri haqida hikoya qiladi va ishtirok etganlarning ro‘yxatini Sultonning o‘zi tuzganini qayd etadi va bunda N. nomi ro‘yxatining boshida turganini ko‘ramiz: “Jahonaro chorbog‘-idagi xushmanzara qasrda ziyofat muqarrar qilindi. Mirzo majlisda bo‘ladiganlarning nomini yozib berdilar: Amir Alisher, Pahlavon Muhammad, Xoja Abdulla Marvorid, Xoja Kamoliddin Husayn Nizomulmulk...”

B.J.ni N. o‘z asalarida tilga olgan va ta’riflagan. “X.M.”da ushbu bog‘ning barpo etilishiga oid ma’lumot qayd etilgan: “Podshoh ul yilki, Xuroson taxtin olg‘ondakim, Jahonaro bog‘i tarhin soldilar”.

“S.S.” dostonida N. B.J.haqida ushbu baytlarni bitadi:

Anga dog‘i kom bo‘ldi nasib,
Dahr aro bog‘e ayladi tartib.

Tufrog‘i mushk-u anbari soro,
Oti olam aro Jahonoro.

Jannatoso harimu bo‘stoni
Yuz Havornaqcha bir gulistoni.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамсат ул-мутаҳиййирин. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Зайниддин Восифий. Бадоеъ ул-воқоеъ. – Т., 1979; Заҳириддин Маҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 2002.*

E.O., Q.E.

BOG‘I SAFID (Oq bog‘) – Hirotning shimoli-sharqidagi bog‘. U temuriylargacha barpo etilgan bo‘lib, Shohrux Mirzo uni anchagina kengaytirgan. Hashamatli chortoq qurilib, atrofiga supa va ayvonlar qilingan. Naqqoshlar va musavvirlar tomonidan haddi a’losida ziynat berilgan bu chortoq adabiyot va san’at homiysi bo‘lgan Boysung‘ur Mirzoga atalgani bejiz emas.

Ey Navoiy, shah xayolin asra ko‘z mulki aro –
Kim, erur ham “Bog‘i Zog‘on” anda,
ham “Bog‘i Safid”.

B.S.da Abulqosim amriga ko‘ra, tarabxona ham bunyod etilgan. Bobur ta’rificha, bu 2 oshyonligi shinam imorat bo‘lib, 2-qavatida turli tomoshalar ko‘rsatilgan. Jang va ov sahnalari tasvirlangan devorlar dekoratsiya vazifasini bajargan. San’atkorlar o‘rtada maxsus ko‘tarma supada o‘ynaganlar. Asilzodalardan iborat tomoshabinlar guruhi esa supani aylanib joylashganlar. Bu tarabxonada N. ham bo‘lgani tabiiy.

“Xam.M.”da Husayn Boyqaroning o‘g‘li Muzaffar Husayn Mirzo farzandining ta’ziyasini “B.S.”da qabul qilgani bog‘ning bu davrda ham obod va mashhurligidan dalolat beradi: “Qurrat ul-ayn saltanat Muzaffar Husayn Mirzoning Ah-

mad Husayn otlig‘ farzandi Tengri rahmatig‘a borganda alar (Jomiy – E.O.) azo so‘rar dastur bila “Bog‘i Safid”g‘a kelib erdilar”. Bobur ham “Necha kundin so‘ng, Muzaffar mirzo uyiga chorladi. Muzaffar mirzo “Bog‘i Safid”da o‘lturur edi. Xadichabegim ham anda edi”, – deb ma’lumot beradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамсат ул-мутаҳаййирин. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Беленицкий А.М. Историческая топография Герата XV в. // Алишер Навоий (Сб. ст.). – М.–Л., 1946; Бобурнома. – Т., 2002; Қодиров М. Навоий даврида томошагоҳлар // “Алишер Навоийнинг ижодий мероси ва унинг жаҳоншумул аҳамияти” мавзуидаги илмий-назарий анжуман маърузалари тезислари. – Т., 2001.*

Q.E.

BOG‘I ERAM – Sharq she’riyatidagi badiiy obrazlardan biri. Rivoyat va afsonalarga ko‘ra, Od qavmining hukmdori Shaddod uni Janubiy Arabistonda San’o va Hazramavt yo Damashq orasida Yer yuzida jannat yaratish da’vosi b-n barpo etgan emish. B.E.ni 8-jannat, zamindagi jannat, Shaddod jannati, deydilar. Sharq adabiyotida u xushmanzara mavze, go‘zal va dilkusho bog‘ ma’nolarida majoziy ma’noda qo‘llanadi. N. ijodida ham B.E. timsoliga murojaatlar uchraydi. M-n:

Ki: “Mag‘rib sori mulki Arman otlig‘,
Bor ermish yuz Eram andin uyotlig‘..”

Yoki:

Kim, ul yog‘durub abri ehsonini,
Eramdek qilib mulk bo‘stonini.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988.*

E.O.

BRAUN Edvard Granvil (Edward Granville Browne; 1862–1926) – angliyalik yozuvchi, sharqshunos, tarix va adabiyot sohasidagi ko‘plab tadqiqotlar muallifi. Kembrij universitetida tahsil olgan, fors, arab, turk tillarini o‘zlashtirgan. Sharqqa bo‘lgan qiziqish ortidan Turkiyada bo‘ladi, so‘ng Kembrijda dars beradi. Fors adabiyotini qunt b-n o‘rganadi, “Forslar orasida bir yil” (1893) asaridan so‘ng ko‘p jildli “Fors adabiyoti tarixi” (1902, 1906, 1920, 1924) kitobini nashr qiladi. Kitobning uchinchi qismida N. asarlarini eslab o‘tadi (422-23, 437-39, 453, 456-57, 505-06, 508-betlar). N. ijodining Yevropada o‘rganilishi bo‘yicha dissertatsiya yoqlagan U.Sotimov B.E.G. ham G‘arbda N.ning o‘ziga xosligini inkor etgan, fors adabiyotining taqlidchisi degan fikrni ilgari surgan Hammer Purgshtal, Fransua Belen, Edgar Bloshelar fikriga qo‘shiladi, deya ta’kidlaydi. N. ning asarlari ko‘p bo‘lishiga qaramay Bobur ijodiga ko‘proq sahifa ajratadi. Umuman, G‘arbda fors shoirlari ortida N. ijodi anchagina past baholangani ma’lum, bu kamchilik yillar davomida boshqa g‘arblik olimlar tomonidan to‘g‘rilandi. B.E.G. ilm-fan olamida sermahsul olim sifatida qadrlanadi.

Ad.: *Сотимов У. Исследование жизни и творчества Алишера Навои в западноевропейском востоковедении. Автореферат дисс. по филол. – Москва, 1998.*

O.T.

BU JAHL (Abu Jahl) (624-y.da o‘ldirilgan) – mushriklardan. Asl ismi Amr ibn Hishom. Islom diniga eng qattiq qarshilik ko‘rsatganlardan biri. Asli arablarning mag‘zum qabilasidan. Mushriklarning payg‘ambar (s.a.v.)ga dushmanliklarida asosiy tashabbuskor bo‘lgan. Uning taklifi b-n Muhammad (s.a.v.)ga suiqasd uyushtirish rejalashtirilgan. Lekin Umar ibn Xattobning islomga kirishi tufayli bu reja amalga oshmagan.

B.J. payg‘ambarga va musulmonlarga ko‘p ozor yetkazgan. Uning va Abu Lahabning qutqusi b-n makkaliklar musulmonlarni muhosara qilganlar. B.J. odamlarni Muhammad (s.a.v.)ni o‘ldirishga da’vat qilgan va u kishi yashirinishga majbur bo‘lgan, so‘ngra Madinaga hijrat qilgan (622).

Ana shunday qilmishlari sababli Bu Jahl tarixda yomon ot qoldirgan. Uning nomi kufr, yomonlik timsoliga aylangan. N. ham bu shaxs nomini ana shunday salbiy timsol sifatida qo‘llagan. “Andog‘ki Muso salovotullohi alayhir rahma ilkidagi quyosh o‘trusida Fir’avn tiyralig‘i zuhurga keldi, hazrati Muhammad arabiy (s.a.v.) ilmi ayn ul-hayotining muqobalasida B.J. zulmati jilva va zuhur qildi.

Dehqoni azalki, tuzdi bu turfa chaman,
Qilmadi aning barcha nabotini hasan.

Bir sori agar ekti gul-u sarv-u suman,
O‘zga sori tikti xas-u xoshok-u tikan”

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ирмияева Т.Ю. История мусульманского мира от халифата до блистательной Порты. Из – Душанбе, Урал ЛТД, 2000.*

Q.E.

BU SAID CHANG – “Tuhfayi Somiy” tazkirasining muallifi Som mirzo ma’lumotlariga ko‘ra, N. onasining bobosi. U Sulton Husaynning bobosi Mirzo Boyqaro huzuridagi nufuzli amirlardan biri bo‘lgan.

Ad.: *Тазкираи “Тўҳфаи Сомий”. – Теҳрон, 1347 (ҳ.-ш.).*

A.A.

BUALISHOH – N. davri musiqa ilmi ustodlaridan biri. N. uning musiqa nazariyasiga oid “Asl ul-vasl” asarini qayd etib o‘tadi. U “Xam.M.” asarida Ustod Qulmuhammadni musiqa amalinigina emas, ilmini ham o‘rganish u-n o‘z davrining benazir musiqashunosi bo‘lgan B.ga tavsiya qilganini ta’kidlaydi. Xondamir “Makorim ul-axloq” asarida “musiqa va maqomlar fanida o‘z davrining yagonasi bo‘lgan Mavlono Bualishoh”ning olti oylik maoshini N.dan oldindan to‘lashini so‘ragani b-n bog‘liq holda ular orasida bo‘lib o‘tgan bir hangomani keltirib o‘tadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамсат ул-мутаҳаййирин. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Ғиёсиддин Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Т., 2015.*

E.O.

BULBUL – chumchuqsimonlar turkumiga mansub sayroqi qush. B. N. lirikasida gul timsoli b-n uyg‘un tarzda oshiqning ma’naviy olamini, ishq iztiroblari, ma’shuqa go‘zalligidan tuygan zavq-u shavqini jonli tasvirlash u-n qo‘llanilgan eng faol timsollardan biridir.

N. B. timsolini ishq yo‘lida faryod chekuvchi, ya’ni sukr yo‘lidagi oshiq – solikka qiyoslaydi va tazod san’atidan foydalanib, uni o‘tda jimgina yonuvchi parvonaga – ishqini pinhon saqlovchi sahv yo‘lidagi orif solikka qarshi qo‘yadi.

Bu aqshom holima sham‘ o‘rtanib,
parvona andin ko‘p,
Chamanda otashin gul,
bulbuli devona andin ko‘p.

N. “L.T.”da Farididdin Attordan ta’sirlanib, B. obrazini zohiriy go‘zallikka, o‘tkinchi jiloga maftun kishi timsolida ham gavdalantirgan:

Dedi Bulbul: “K-ey bu majma’g‘a dalil,
Men bo‘lubmen gul havosidin zalil.

Ondin oyru oshiq-u devonamen,
Aql-u hush-u sabrdin begonamen.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий қомусий луғати. 1-жилд. – Т., 2016.*

M.X.

“**BULBULNOMA**” – Fariddin Attorning tasavvufiy mazmundagi mo‘jaz dostoni bo‘lib, unda qushlar bulbulning muttasil nola-yu faryodlari o‘z tinchlarini buzayotganidan Sulaymon (a.s.)ga shikoyat qiladilar. Payg‘ambar lochin orqali uni o‘z huzuriga da’vat etadi. Shu tariqa, bulbul va lochin, bulbul va gul, bulbul va Sulaymon, bulbulning qushlarga qarata aytgan so‘zlari, Hudhud javobidan so‘ng, o‘z ahvolini anglagani, qoliplovchi hikoyatlar vositasida Alloh va Odam munosabati, ilohiy ishq asrori xususida fikr yuritiladi.

Attor ijodi u-n xos xususiyatlardan biri shuki, u avval hikoyat va tamsillarni keltirib, keyin ularning mag‘zini lo‘nda va tushunarli qilib chaqib beradi. Natijada, tasavvufning ko‘plab timsol-tushunchalari o‘quvchi ko‘z o‘ngida o‘zining haqiqiy qiyofa va mazmuni b-n yaqqol namoyon bo‘ladi. Jumladan, “Ilohiynoma”da Saddi Iskandariy – Iskandar devori aslida insonning o‘zi – uning vujudi bo‘lib, kishining o‘ziga o‘zi eng katta g‘ovligini aytib o‘tgan bo‘lsa, “B.”da Ko‘hi Qof degani, aslida, insonning jismi-yu Simurg‘ – uning joni ekaniga ishora qilib, Simurg‘, ya’ni jonning mohiyatiga yetish u-n kishi Qof tog‘ini, ya’ni jismni o‘z izmiga bo‘ysundirish zarurligiga e’tibor qaratadi.

B. forsiy adabiyotda dubaytiy vazni sifatida mashhur, o‘zbek xalq qo‘shiqlarida ham faol qo‘llanadigan hazaji musaddasi maqsur (mahzuf) vaznida (mafoiylun mafoiylun mafoil – V – – / – V – – / – V – –) yozilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Шайх Фаридуддин Аттор. Мажмўаи аз осор (Панднома. Бесарнома. Булбулнома). – Теҳрон, 1376; Хельмут Риттер. Фаридуддин Аттор // Ғойиблар хайлидан ёнган чироқлар (Мақолалар тўплами). – Т., 1994; Мусаев Ш. Литературное наследие Фаридуддина Аттара в рукописном фонде Института востоковедения АН РУз // “Шайх Фаридуддин Аттор Нишобурийнинг ҳаёти ва ижоди” мавзусидаги халқаро илмий анжуман материаллари.*

E.O.

BURJ – yulduzlar turkumi. Burjlarning 12 tasi Quyoshning osmon qubbasidagi yo‘lida joylashgan bo‘lib, ular quyidagicha nomlangan: Hamal, Savr, Javzo, Saraton, Asad, Sunbula, Mezon, Aqrab, Qavs, Jadiy, Dalv, Hut. Bular bizga ancha tanish bo‘lgan hijriy-shamsiy oy nomlaridir. N.ning “X.”sidan o‘rin olgan dostonlar, “L.T.”ning Me’roj tuniga bag‘ishlangan na’tlari, “H.” qasidasi va shoirning ayrim g‘azallarida burjlar nomlari keltiriladi:

Savr-u Hamal aylabon fig‘onlar,
Qurboni aning qilurg‘a jonlar.

Javzo ko‘zi to‘rt o‘lub Baqardin,
Topub Saraton ham ul nazardin...

Shu tariqa Muhammad (s.a.v.) Me’roj tunida ko‘kka ko‘tarilishda davom etayotib, Savr (Buqa) va Hamal (Qo‘y) B.lariga ro‘baro‘ kelganlarida, ular dod-fig‘on etib, payg‘ambar yo‘liga o‘zlarini qurbon qilmoqchi bo‘ladi. Shoir bu misralarda har ikkala hayvonni qurbonlik qilish udumga aylangani hamda yulduzlar ilhaqlik b-n Alloh rasulini kutganiga ishora qiladi. Shu bois, ular payg‘ambarni bir-biridan qizg‘anadi. Baqar Savrning yana bir arabcha nomi bo‘lib, Javzo (egizak yoki beli oq-qora qo‘y) burji payg‘ambarning undan tezroq o‘tib, o‘zining oldiga kelishlarini ko‘zi to‘rt bo‘lib kutsa, Saraton (Qisqichbaqa) ham Savrga tikilib qoladi. Sher (Asad) B.i payg‘ambardan o‘zini chetga olsa, Xo‘sha, ya’ni Sunbula (Bug‘doyboshi) deb nomlanuvchi burj Rasuli akramning otiga ozuqa bo‘ladi. Fors-tojik tilida Tarozu deb ataluvchi Mezon nomli yulduzlar turkumi payg‘ambarning bosgan izlaridan jon o‘lchay boshlasa, Aqrab, ya’ni Chayon shaklida tasavvur etilgan yulduzlar Undan zahrini tarqatuvchi dori topadi. Turkiyda Yoy deb ataluvchi Qavs B.i belidan quyi qismi ot shaklidagi yoydan o‘q otayotgan odam tarzida tasavvur etilgan. U qoshini, ya’ni yoyini eggan holda burchakka o‘tib, payg‘ambarga ehtirom ko‘rsatsa, qadimgi tilimizda O‘chku deb atalgan, belidan pastki qismi baliq dumidan iborat shoxli echki suratidagi burj (Jadiy) Allohning rasuli

kelishi b-n go‘yo qo‘chqorga aylanib qoladi. Bir nomi Qo‘bha bo‘lgan Dalv burji qo‘lidagi idishdan suv to‘kib turgan kishi suratida tasavvur qilingan. Uning idishidan to‘kilgan suv payg‘ambarning sharofati b-n hayot ramziga aylangan bo‘lsa, dumlari bir-biriga tasma b-n bog‘langan baliqlarni eslatuvchi burj (Hut)ning joni shu suv b-n toza bo‘lib qoladi, ya’ni yomonliklardan qutuladi. Ko‘rinadiki, ulug‘ shoir burjlar vositasida ham o‘ziga xos badiiyat namunalarini yaratgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

H.E.

BUROQ – Me’roj tunida Muhammad (s.a.v.) minib, ko‘kka ko‘tarilgan ot, markab. Ma’lumki, Sharq adabiyotida Me’roj tasviri katta o‘rin tutadi. Shu munosabat b-n B. ham ko‘p tilga olinadi. An’anaga rioya qilgan holda, N. ham o‘z dostonlari muqaddimasida me’roj tuniga alohida bir bob bag‘ishlaydi. Chunonchi, “H.A.”ning 2-bobi, “F.Sh.”ning 5-bobi, “S.S.”, “L.M.”, “S.I.” – har uch dostonning 4-boblari shular jumlasidan bo‘lib, ularda ham Buroq tilga olinadi. Ba’zi tadqiqotchilar B.ni “Otga o‘xshash bir markab”, deb ta’riflagan. N. uni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ot, raxsh deb ataydi. Bundan tashqari unga nisbatan tavsan so‘zini ham qo‘llaydi. Jumladan, “F.Sh.”da Rasulullоh (s.a.v.) ning B.qa minishi shunday tasvirlanadi:

Qo‘pub ot uzra andaq sekridi bot,
Ki, hayron qoldilar ham payku ham ot.

Ham avval hamla raxshi barqxo‘din,
O‘tub tufroq-u el-u o‘t-u suvdin.

Qamarg‘a chun xiromi tavsan aylab,
Yuzi xurshedi oni ravshan aylab.

“L.M.”da esa N. B.qa xos yana bir xususiyatni, ya’ni uning jismi nur b-n yo‘g‘rilganini qayd etadi:

Kim yetti baridi nurbaxshi,
Hamroh anga mahz nur raxshi.

Bu raxshki barqi garmravdur,
Yo‘q-yo‘qki, Buroqi barqdavdur.

Xilqat aro nurdin sirishti,
Ne nur, farishtayi bihishti.

N. asarlaridagi B. ta’rifi va tavsifidan yana uning quyidagi xususiyatlari ma’lum bo‘ladi: u shunday uchqur otki, ming yillik yo‘l uning u-n bir qadam; uning jismiga ustidagi odamning og‘irligi tushmaydi. Bundan tashqari, muallif B.qa nisbatan “markabi humoyunfol”, “raxshi osmonpaymo”, “sabuksayri qudsiysirisht” kabi iboralarni qo‘llagan.

B. nomi N.ning na’t (payg‘ambarga bag‘ishlangan) g‘azallarida ham uchraydi:

Zihi Buroqing izi mehr-u sayri barqoso,
Bu barq sayri bila po‘yasi falakfarso

Ad.: *Алишер Навоий. Наводир ушшабоб. ТАТ. 10 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-жилдлар. – Т., 2011.*

Q.E.

BURUNDUQ BARLOS MUHAMMAD (1507-yilda vafot etgan) – Barlos beklaridan. Nasabi Joku barlosga borib ulanadi. Ma’lumki, uning avlodlari Amir Temur va temuriylar davrida ko‘p xizmatlar ko‘rsatgan katta mavqega ega bo‘lgan.

B.B.M. faoliyatini Sulton Abulqosim Bobur hukmronligi davrida boshlagan. Uning vafotidan so‘ng, Sulton Abusaid xizmatiga o‘tgan va Abusaidning o‘g‘li Ulug‘bek mirzoga atka etib tayinlangan. Ayni paytda Jahongir barlos b-n birgalikda Kobul viloyatini Ulug‘bek mirzo nomidan idora qilgan. Keyinchalik mazkur mirzo b-n oralari buzilgani sababli Hirotga ketgan. Uzoq yillar Husayn Boyqaro dargohida ulug‘ beklardan bo‘lgan. Shuningdek, u Sulton Husaynning o‘g‘li Muzaffar mirzoning bek atkasi (tarbiyachisi) edi.

N. va Majdiddin o‘rtasidagi ziddiyatlar vaqtida Majdiddinga tarafdorlik qilgan. Shu sababli hibsga olingan va bir yil qamoqda yotgan. So‘ngra ozod qilinib, o‘z mansabiga qayta tayinlangan.

N. bu voqeaga bag‘ishlab qit’a yozgan. Uning mazmuni garchi B.B.M. Majdiddinni qo‘llab-quvvatlagan bo‘lsa-da, lekin u b-n N. o‘rtasidagi munosabatlar ochiq dushmanlikka yetib bormaganini ko‘rsatadi:

Tutulmish erdi Majid Barlos bekka,
Der erdikim bu yanglig‘ qutulg‘ay.

U qutuldi-yu, bu tutildi, ilohiy,
Tutulg‘an qutulg‘ay, qutulg‘an tutulg‘ay.

Husayn Boyqaro davlatida yuz bergan ichki siyosiy qarama-qarshilik vaqtida ham u N. b-n hamkor bo‘lmagan, zero, yuqorida aytib o‘tilganidek, B.B.M. Husayn Boyqaroning Xadichabegimdan bo‘lgan o‘g‘li Muzaffar mirzoning bek atkasi edi va uning manfaatlarini himoya qilardi.

Davlatda yuz bergan barcha fitnalar, o‘zaro urushlarning sababi ham Xadichabegimning o‘z o‘g‘li manfaatlarini boshqa shahzodalarnikidan ustun qo‘ygani edi. 1498-y.da B.B.M. Muzaffar mirzo b-n Astrobodga yurish qilib, Mo‘min mirzoni asir olgan va Hirotga keltirib, Ixtiyoriddin qal’asiga qamagan. Biroz vaqtdan so‘ng shahzoda Xadichabegim va Nizomulmulkning makr-u hiylalari oqibatida o‘ldirilgan (1498-y.).

Sulton Husayn vafotidan so‘ng, B.B.M. Muzaffar mirzoning ulug‘ begi bo‘lgan. 1507-y.da Shayboniyxon Xurosonga bostirib kirgan va temuriylar qo‘shinini tor-mor keltirgan. B.B.M. urushda asir olingan va sal o‘tmay o‘z ajali b-n qazo qilgan

Ad.: *Абдураззоқ Самарқандий. Матлаъйи саъдайн ва мажмайи баҳрайн. 2-жилд. – Т., 2008; Хондамир. Ҳабиб ус-сияр. – Т., 2011, Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 1960.*

Q.E.

BURUNCHAK – nozik ipakdan to‘qilgan ro‘mol. N.ning “T.M.A.” asarida Hurmuz binni Anushervon zikrida bu so‘z uchraydi. Hurmuz sipohsolor Bahrom Cho‘binani Xurosonga, Chin xoqoni ustiga yuboradi. U Chin xoqoni va o‘g‘lini mag‘lub qilib, katta o‘ljani qo‘lga kiritadi, so‘ng Hurmuzga jo‘natadi. Hurmuz dushman makri va o‘zining nafsi badligi bois unga hurmatsizlik ko‘rsatib, burunchak va charx yuboradi, bu esa o‘zaro munosabatlarning buzilishiga sabab bo‘ladi:

“Hurmuz jihatsiz badfe’lligi jihatidin va mol hirsidin Bahromning ishin pisand qilmay, mashhur mundog‘durkim, anga burunchak va charx yubordikim, qilg‘on ishiga loyiq bulardur. Bahrom Cho‘bin mutag‘ayyir bo‘lib anga yog‘liqdi”

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

B.R.

BURHONIDDIN ABU NASR PORSO (vafoti 875 hijriy) – tasavvufning ulkan vakillaridan biri. To‘liq nomi Xoja Hofizuddin Abu Nasr Muhammad binni Muhammad binni Muhammad Hofiz Buxoriy. Mashhur Xoja Muhammad Porsoning o‘g‘li. 822-hijriy y.da otasi b-n haj ziyoratiga borgan. Haj arkonini ado qilgan hojilar Xoja Muhammad Porsodan xalqning niyozini ado etish va duo qilishni so‘raganlar. Shunda xoja bu ishni o‘g‘li B.A.N.P.ga havola etgan va u duo qilgan. N. “H.A”da bu voqeaga maxsus bob bag‘ishlagan. “Xoja Muhammad Porsodin haj ahli duo istid’o qilmoq va o‘g‘li Xoja Abu Nasr aning istid’osi bila duo qilmoq” deb nomlangan ushbu bobda N.ning bu ota-o‘g‘ilga bo‘lgan ulkan hurmat va ixlosi o‘z aksini topgan:

Haq yo‘lida xojai qudsiy janob,
Roqimi “Qudsiya”u “Fasl ul-xitob”.

Na’li izi gunbadi davvorso,
Ulki laqab keldi anga Porso.

Garchi o‘zi nodirai asr edi,
O‘g‘li aning Xoja Abu Nasr edi.

Faqrda ul bir shahi ozoda xo‘,
Ul shahi ozoda-yu – shahzoda bu.

Xojaning ishorati b-n B.A.N.P.ning duo qilishi, ularning o‘sha paytdagi holati bobda shunday tasvirlangan:

Bo‘yla debon qildi ishorat anga,
Uzrga ne haddi iborat anga.

Ochti ilik ashk to‘kub sham’vor,
Yo ichi kuyganda nechukkim chanor.

Rahmat u avf istamak oyin etib.
Xoja turub yig‘labon omin etib.

B.A.N.P.ning keyingi hayoti Balxda kechgan. N. uni “N.M.”da zikr qilgan. Bir majlisda Shayx Muhiddin Arabiy haqida so‘z ketadi. Shunda B.A.N.P. otasining mazkur shayxning asarlari haqidagi fikrini naql qiladi: “Alar der erdilarki, “Fusus” jondur va “Futuhot” ko‘ngul. Va dag‘i der erdilarki, har kim “Fusus”ni yaxshi bilsa, anga hazrati Risolat (s.a.v.) mutoba’atining doiyasi qaviy bo‘lur”. Shu o‘rinda N. mazkur shayxning shaxsiyatiga xos xususiyatni, shayxning tog‘asi g‘azab otiga minib, bir kishini so‘kib turganda, B.A.N.P. uni qanday qilib jahlidan tushirgani haqidagi naql vositasida ko‘rsatadi. B.A.N.P. haqida N. faqat tazkiraning unga bag‘ishlangan qismida emas, boshqa o‘rinda ham so‘z yuritadi. Tazkiraning muqaddima qismida muallif tasavvuf ahliga xos xususiyatlarni sanab o‘tadi, shu jumladan, tariqat odobiga to‘xtaladi va bunda ham mazkur tushunchaning mohiyatini B.A.N.P. hayotidan olingan bir hikoya yordamida ochib beradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

Q.E.

BUTKADA – I. butxona, sajdagoh, ibodat qilinadigan joy; butparastlar ibodatxonasi. Islom dini kelguncha, Markaziy Osiyoda ham B.lar ko‘p bo‘lgan. Chunki zardushtiylar o‘t b-n birga butga ham sig‘inar edi. Nasroniylarning ibodatxonasi ham ba’zida B. deyilgan.

II. Tasavvufda ilohiy ma’rifatga to‘la komil orifning botini.

Ul haramdin dedi, men butkadadin,
Bir-biriga so‘z ulandi mahkam.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва табъироти ирфоний. – Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.); Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988.*

E.O.

BUTI OZARI – ozariy but, Ozar yasagan but. Sharq mumtoz she’riyatidagi badiiy obrazlardan biri. Ma’lumki, Ibrohim (a.s.)ning otasi Ozar mohir buttarosh bo‘lib, u nihoyatda go‘zal butlar yasagan. Ibrohim (a.s.) esa bu butlarni sindirib, xalqni butparastlikdan qaytargan – odamlarni yagona Xudoga sig‘inishga da’vat etgan.

B.O. – irfoniy she’riyatda go‘zallik, dilrabolik ramzi hisoblanadi. Ayni jihatdan u buti Chin, buti Yag‘mo, buti Chigil, buti totor kabi timsollarning ma’nodoshi bo‘lib keladi. N. ijodida ham B.O. obrazi uchraydi.

Uyga hanuz kirmayin dinima tushti yuz xalal,
Buki kelur, ko‘r, ey ko‘ngul, ul buti ozarimudur?

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988.*

E.O.

BUXORIY (ABU ABDULLOH MUHAMMAD IBN ISMOIL AL-BUXORIY) (810, Buxoro – 870 Samarqand) – Ilk Uyg‘onish davri

mutafakkiri, sahih hadis yo‘nalishining asoschisi, islom olamidagi eng yetuk va mashhur muhaddis, faqih, butun musulmon olamining faxri, iftixori. Imom B. o‘z davri ilmlarini, ayniqsa, diniy ilmlarni har tomonlama o‘rgangan. O‘n yoshgacha Qur’oni Karimni yod olib, minglab hadislarni barcha dalili b-n xotirasida saqlab yurgan. Ilmini chuqurlashtirish niyatida yurtma-yurt kezgan. Hijozi sharifda qirq yildan ortiq yashab, Shosh, Basra, Kufa, Bag‘dod, Hirot, Nishopur, Mashhad, Ray, Jibolu, Xuroson, Qohira, Farabr, Makka va Madina kabi bir qancha shaharlarda bo‘lgan, u yerdagi allomalardan, olimlardan, taniqli muhaddislardan hadis yozib olgan, “Al-Jome’ as-sahih” va “Al-adab al-mufrad” kabi mashhur hadis kitoblarini yozib tamomlagan. Quvvayi hofizasining aql bovar qilmas darajada kuchliligi jihatidan u kishiga o‘z davrida hech kim teng kelolmagan. 600 ming hadisni yoddan bilgan.

B.ning tabarruk ismi va yigirmadan ortiq kitoblarining nomi, sharhi juda ko‘plab tarixiy manbalarda zikr qilingan. Shunday asarlardan biri, bu N.ning “N.M” tazkirasidir. N. tazkirada u kishiga alohida fiqra bag‘ishlamagan, ammo Abulvalid Ahmad b. Abi Rajo (r.t.)ga bag‘ishlangan fiqrada mashhur muhaddisni va “Sahihi Buxoriy” kitobi nomini esga olgan: “Ozodon qaryasidindurki, Hirotga muttasildur. Ulumi zohiriy va botiniy bila olim erdi. Imom Ahmad Hanbal (r.a.) shogirdidur. *Va Buxoriy o‘z* “*Sahih*-”*ida andin hadis rivoyat qilibdur*. Avolida ko‘p moli bor emish. Barchasin hadis va haj va g‘azo talabida sarf qilibdur”... Yana N. o‘zining “A.” asarini yozishda ham Imom Buxoriyning hadis kitoblaridan foydalangan.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Арбаъин. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Имом Бухорий. Саҳиҳи Бухорий. 2 жилдлик. 1-жилд. – Т., 2008.*

B.R.

BUXORIY IDRIS MAXDUM – Idris xoja maxdum Nabira xoja o‘g‘li Buxoriy (1880–1919) – buxorolik shoir va xattot. Muftiy oilasida tug‘ilgan B.I.M. yoshligida madrasalarda ta’lim olib, taniqli xattot bo‘lib yetishadi. Uning o‘z davri xattotlari haqida “Risolai xushnavison” (Chiroyli yozuvchilar risolasi) nomli tazkirasi bo‘lib, asarining manzuma variantini “Risolai xattotoni manzuma” (Manzuma xattotlar risolasi) yoki “Tazkirat ul-xattotin” (Xattotlar tazkirasi) nomi b-n qayta ishlagan. Mazkur asarning bir nusxasini Muhammad Sharif Sadri Ziyo (1865–1932) chiroyli nasta’liqda kitobat qilgan. Ushbu manzuma 61 baytdan iborat bo‘lib, 50 nafardan ortiq kitobat ahli haqida xabar berilgan.

B.I.M.ning mazkur asarlarida N. asarlarini ko‘chirgan xattotlar haqida mufassal ma’lumot berilgan.

Ad.: *Муродов А. Марказий Осиё хаттотлик санъати тарихидан. – Т., 1971; Муҳаммад Шариф Садри Зиё. Тазкират ал-хаттотин. ШИ-1, № 1304/III; Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 7-жилд. – Т., 2004.*

Muh.A.

BUXORIY NIYOZ BOQIY VALADI MULLO NAVRO‘Z – “Xamsa”, “T.M.A.” va “L.T.”ni yaxlit bir qo‘lyozma holida ko‘chirgan. – T., O‘zR FA ShI. Inv. № 4440. 336 varaq. Buxoroda 1267/1850–51-y.da kitobat qilgan.

Ad.: *Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар, – Т., 1991; Собрание восточных рукописей академии наук Узбекистан. VII. – Т., 1964.*

Muh.A.

BUXTUNNASR I – Buxtunnasr I eramizgacha bo‘lgan 1125–1104-yy.da Bobil (Vavilon) hukmdori. N. asarlarida tilga olingan B. shu kishi bo‘lib, dunyo tarixnavisligida uning nomi Navuxudonosor deyiladi. Yangi Bobil sulolasiga (ikkinchi nomi Xoldeylar sulolasi) mansub. Otasining hukmronligi davrida B. uning lashkarbo-

shisi bo‘lgan va Misrga yurish qilib, Fir’avn b-n urushgan. Otasi o‘lgandan so‘ng taxtga o‘tirgan hamda Suriya, Falastin va Iudiyani bosib olgan.

B. o‘zining bir nechta g‘aroyib ishlari b-n tarixda qolgan. Ulardan biri Bobil minorasini qurgani bo‘lsa, ikkinchisi Bobilda bunyod etilgan osma bog‘lardir. Uning eng muhimi, vahshiyona ishi – uch marta Bayt ul – Maqdisni vayron qilgani, Masjidi Aqsoni buzgani manbalarda qayd etilgan.

B. haqida N. “T.A.H.”, “T.M.A.” asarlarining ko‘p o‘rinlarida to‘xtalib o‘tgan. Uning bergan ma’lumotlari Sharqda ushbu shaxs haqida keng tarqalgan tasavvurlarga asoslangan bo‘lib, ularda tarixiy faktlar afsona va rivoyatlar b-n aralashib ketganini ko‘rish mumkin. Sharqda B. butun dunyoni egallagan va hukmronlik qilgan to‘rt kishining biri hisoblanadi. Boshqa uchtasi Zulqarnayn, Namrud va Sulaymon (a.s) deb ko‘rsatiladi. Bu fikrni qayd etar ekan, N. tarixiy haqiqatga mos ma’lumotni ham, ya’ni Buxtunnasrning Bobil hukmdori ekanini aytib o‘tadi. Shu o‘rinda u Buxtunnasrning gumashtasi bo‘lgani haqidagi ma’lumotni qo‘shimcha qiladi.

N. asarlarida B.ning Bayt ul – Maqdisni zabt etgani va vayron qilgani ham o‘z aksini topgan. Tadqiqotlarda ko‘rsatilganidan farqli o‘laroq, N. B. Bayt ul – Maqdisni 3 marta buzgani haqida ma’lumot beradi. Uning yozishicha, B. Sulaymon (a.s) qurgan Masjidi Aqsoni vayron qilgan, Bayt ul – Maqdisni yer b-n barobar qilib, tekislab tashlagan. Sulaymon (a.s) Masjidi Aqso devorlariga oltindan bo‘rtma naqshlar soldirgan, javohirlar, qimmatbaho toshlar b-n bezatgan edi. B. ularning barchasini ko‘tarib olib ketgan. N. B.ning Doniyol (a.s) ni tutqun qilgani haqida yozadi. Shu ishi sababli masx bo‘lganini ta’kidlaydi (Masx bo‘lish haqida qarang: “Masx bo‘lish”).

N. B.ning o‘limini ham Doniyol (a.s) b-n bog‘laydi. Tutqunlikdan ozod bo‘lgandan so‘ng Doniyol (a.s) B.ga qarshi kurash boshlagan. Qo‘shin to‘plab, uning ustiga yurish qilgan. Buxtunnasr Xuziston qo‘rg‘oniga kirib, mustahkamlanib olgan. Doniyol (a.s) qo‘rg‘onni zabt etgan va B. qatl qilingan.

Tarixiy tadqiqotlardagi ma’lumotlarga ko‘ra, esa B. o‘z ajali b-n o‘lgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; История Древнего Востока. – М., 2005.*

Q.E.

BUXUROT (buxur) – o‘tga tashlanganda xushbo‘y hid tarqatadigan modda. N. bu so‘zni “F.Sh.” dostoni va “T.M.A.” kabi asarlarida mahorat b-n qo‘llagan. Hushidan ketgan Shirinni malika Mehinbonu va Shopur B. yordamida o‘ziga keltiradi:

Bu yanglig‘ qissalar o‘tquncha laxte,
Yotib Shirin nechukkim sho‘rbaxte.

Dumog‘ig‘a tutub har dam buxurot,
Ani o‘z holig‘a kelturdilar bot.

“T.M.A.” asarida Xusrav Parviz binni Hurmuz zikrida ham “buxurot” so‘zi ishlatilgan: “Va necha yuz xodim ud so‘zlar bila buxurot kuydurub, el tarafidin atrofida olib yururlar erdi”, deb yozadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

B.R.

BUQROT – Gippokrat (mil. av. 460 Kos oroli – 377 Fessaliya). B., Abuqrat – mashhur yunon hakimi, ilmiy tibbiyotning asoschilaridan biri. Yunonistonda mashhur bo‘lgan shifokor gippokratlar sulolasining o‘n sakkizinchi avlodi. 75 ga yaqin asar B.ga nisbat beriladi. “Majmuayi Buqrotiya” nomi ostida jamlanib, mashhur bo‘lgan bu asarlar B. vafotidan so‘ng o‘g‘illari va shogirdlari tomonidan yozilgan. U tibbiyotni kohinlar qo‘lidan

qutqardi deya, “tibbiyotning otasi” nomini berishadi. B.ning shifokor burchi va xulq-atvorining qisqacha ta’rifiga bag‘ishlangan “Gippokrat qasamyodi” asari barcha zamonlarda dasturulamal bo‘lgan.

N. “T.A.H.” asarida B. haqida to‘xtalib, uning mashhur “Kitob al-fusun” (“Aforizmlar”) nomli kitobini yodga oladi: “Buqrot hakim Fishog‘ursning shogirdidur. Va Bahman chog‘ida erdi va tibb ilmida mohir erdi va tasonifi bor. Va “Fusuli Buqrot” ul jumladindurkim, atibbo qoshida bag‘oyat mu’tabardur. Ul debdurkim, umr qisqadur, ish uzun. Oqil uldurkim, bu qisqa umrni bir nimaga sarf qilg‘aykim, zaruratroqdur, ya’ni oxirat maslahati va Tengri taolo rizosi”. N. asarlarida B. ham vujud, ham ruh tarbiyachisi o‘laroq gavdalanadi. Ayniqsa, “S.I.” dostonida Iskandarning ma’naviy rahnomalaridan sanaladi:

Hamul hikmat ahli bo‘lub iki xayl,
Ravon qildi har xayl bir ishga mayl.

Filotun-u Suqrot o‘lub bir taraf,
Arastu-yu Buqrot o‘lub bir taraf.

“F.Sh.” dostonida esa Suqrotni “Zamona Buqroti” deydi:

Bu tog‘ ichra kishi qilsa guzore,
Ko‘rar hijron tunidek tiyra g‘ore.

Erur g‘or ichra Suqroti yagona,
Dema Suqrot, Buqroti zamona.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; ЎзМЭ. 1-жилд. – Т., 2002.*

Z.R.

BUQROTUS – hakim. N. “T.A.H.” asarida Buqrot hakimning shogirdi sifatida ta’riflaydi, hikmatlaridan (yaxshilik abadiy, yaxshi so‘z ko‘r gulga ziyo baxsh etadi, oz naqd ko‘p nasiyadan afzalroq mazmunidagi) namunalar keltiradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

A.A.

BUVA Lyusen (Lucien Bouvat, 1872–1942, Fransiya) – Sharqshunos, islomshunos olim. “Osiyo jamiyati” kutubxonachisi, Frans de Kollej professori. Temuriylar davri, Boburiylar sulolasi, Xiva xonligi tarixi bilan shug‘ullangan. N. hayoti va ijodi borasida 1902-y. Parijda o‘tkazilgan sharqshunoslar anjumanida “M.L.”ning yangi aniqlangan qo‘lyozmasi haqida ma’ruza qiladi. “Osiyo jurnali”da (1926) e’lon qilingan “Temuriylar davri madaniyati haqida risola” nomli maqolasida ilm-fan, madaniyat, san’at ahllari haqida ma’lumot beradi. Olim N.ni oliyjanob xislatlar egasi deya ta’riflaydi. Biroq B.L. ham ayrim sharqshunoslar singari N.ni fors adabiyotining taqlidchisi sifatida baholagan. Mazkur risola “Mo‘g‘ul imperiyasi” (1927) monografiyasiga kiritilgan bo‘lib, kitobga taqriz yozgan V.V.Bartold B.L.ning temuriylar tarixini yozishda ilmiy yondashmagani, mo‘g‘ullar deb berishda Yevropadagi mashhur tushunchaga urg‘u bergani, ammo undagi ma’lumotlar o‘zaro muvofiq emasligi, juda ko‘p muhim shaxslar deyarli e’tiborga olinmagani va ko‘plab kamchiliklarini ko‘rsatib o‘tadi. Fransuz n.shunosi Mark Toutantning ta’kidlashicha, B.L. “M.Q.”ni Dehlaviyning “Anis al-qulub” asariga taqlidan yozilgan, “S.I.”ni Aleksandr Makedonskiy haqidagi tarixiy asar, deb xatolikka yo‘l qo‘ygan.

Ad.: *Lucien Bouvat. L’Empire mongol (2e phase); [Timour et ses successeurs ; Les Souverains du Khârezm. 1336-1857; Les Souverains du Khârezm. (Khans de Khiva) 1502-1920. 1927; Bartold V.V. Lucien Bouvat L`empire Mongol: (2-eme phase). Paris, 1927; Retsenziy. – Leningrad. – 28 str.; Mark Toutant. Taqlid obrazi sharqshunoslik ko‘zgusida // “Markaziy Osiyo renessansi” jurnali. 2021. №1.*

O.T.

BO‘LUK – o‘rta asrlarda mavjud bo‘lgan ma’muriy-hududiy birlik. Mamlakatdagi vilo-

yatlar, shuningdek, ayrim yirik shaharlar ham B.larga bo‘lingan. Bu atama turkiy “bo‘lish”, “bo‘linmoq” so‘zlaridagi “bo‘l” o‘zagidan yasalgan. Binobarin, uning ayrim manbalarda “buluk” shaklida berilishi to‘g‘ri emas. N. davrida poytaxt Hirot shahrida to‘qqizta B. bo‘lgan. Shahardagi B.lar o‘z navbatida mavzelarga, viloyatlardagi B.lar kentlarga bo‘lingan.

N. asarlarida ham ushbu atama qo‘llangan. “V.” asarida muallif o‘zi vaqf qilgan mulklar haqida ma’lumot berar ekan, ularning qayerda joylashganini ham aniq ko‘rsatib o‘tadi va bunda B.lar va mavzelar nomini qayd etadi. Jumladan, vaqf qilingan bog‘lar va yerlar haqida yozganda ulardan bir qismining Olinjon B.iga qarashli Farroshon mavzesida joylashganini aytadi: “Va mahdudotkim, shahr tavobi’idadur – Olinjon bo‘lukida Farroshon mavzeyida yigirma besh jerib bog‘, yigirma uch jerib bir-biriga muttasil, yana bir qit’a bog‘ bila yer o‘n sekkiz jeribkim, andin ikki yarim jerib uzum bog‘i...” Hirotning mashhur Injil B.ida ham N.ga qarashli mulklar bo‘lgan va shoir keyinchalik ularning muayyan qismini vaqf qilgan va “V.”da qayd qilgan: “Injil bo‘lukidin Bog‘i Murg‘onda to‘rt jerib...” N. bergan ma’lumotlardan ko‘rinadiki, u vaqf qilgan yer-mulklarning katta qismi Sabg‘ur B.ida joylashgan. Asarda ularning to‘liq ro‘yxati berilgan.

Hirot shahridagi B.lardan tashqari shahar atrofidagi hudud ham B.larga bo‘lingan. N. bu hududlarga katta e’tibor berib, g‘amxo‘rlik ko‘rsatgan, favqulodda vaziyatlar yuz berganda ularning xavfsizligini ta’minlashga intilgan. Jumladan, Badiuzzamon mirzo otasining yurishga ketganidan foydalanib, Hirotga hujum qilganida, N. Hirotda qolgan bir nechta beklar b-n shahar atrofidagi B.lar aholisini himoya qilish choralarini ko‘rgani haqida “Habib us-siyar” muallifi shunday ma’lumot beradi: “Amir Nizomiddin Alisher... va Hirotda qolgan boshqa amirlar bu voqeani eshitib, iztirob dengiziga cho‘mdilar va ... bo‘luklarning xalqini shahar ichkarisiga olib, uning devorlarini mustahkamlashga qaror berdilar”.

Ad.: *Алишер Навоий. Вақфия. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Зайниддин Восифий. Бадоеъ ул-вақоеъ”. Т., 1978; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 1960; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985.*

Q.E.

“**BO‘STON**” – Shayx Sa’diy Sheroziyning masnaviy usulda 1257-y.da yozilgan pand-nasihat xarakteridagi, qariyb ming baytdan iborat asari. N. bolalikda ustozlari yordamida o‘qib-o‘rgangan darslik kitob.

Sa’diy Sheroziy o‘z asarini hukmdor Abubakr ibni Sa’di Zaniy (1216–1260)ga taqdim etgan. Tuzilishiga ko‘ra, asar 10 bob va bir debochadan iborat. Unda muallif salkam 40 yillik sayohat-u safarlarda to‘plagan tajribalari va ko‘p mutolaa jarayonida chiqargan xulosalari asosida odob-axloq, odat-udum, hikmatlarni qalamga olgan. “B.” “Sa’diynoma” nomi b-n shuhrat qozongan.

“B.”da o‘z davri u-n dolzarb bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy masalalarni ham bayon qilgan hamda bayon qilgan har bir masalaga tamsil qilib hikoyatlar keltiriladi. Bu asar qadimdan alohida darslik sifatida yoki qisqa odob bilimga doir darslikdan o‘rin olib keladi.

N. “L.T.” dostonining “Bu kitob nazmida o‘z munosabatining tarqibi” nomli bobda “Yodima mundoq kelur”, deya bolalik xotiralariga asoslanib, hasbi hol xarakterida ilk savod olish jarayonlarini lirik lavhalarda tasvirlaydi. Lavhada bolalarning savod chiqarishida muhim rol o‘ynagan kitoblardan Sa’diyning “B.” kabi mashhur asarini talmeh san’atining ochiq va murakkab turlari vositasida tilga oladi:

Yodima mundoq kelur bu mojaro
Kim, tufuliyat chog‘i maktab aro.

Kim, chekar atfol marhumi zabun,
Har tarafdin bir sabaq zabtig‘a un.

Emgonurlar chun saboq ozoridin,
Yo “Kalomulloh”ning takroridin.

Istabon tashxisi xotir ustod,
Nazm o‘quturkim, ravon bo‘lsun savod.

Nasrdin ba’zi o‘qur ham doston,
Bu “Guliston” yanglig‘ ul “Bo‘ston”.

“H.S.H.A.” asarida esa shoir ustozi Sayyid Hasan Ardasherning Sa’diy Sheroziyning bu asariga ixlosi balandligini alohida ta’kidlab ko‘rsatgan: “... va masnaviy jinsidin Shayx Muslihiddin Sa’diy Sheroziy (rahmatullohu oli) “Bo‘ston-”ig‘a mu’taqid erdilar”.

“N.M.” tazkirasining 716 “Shayx Mushrifuddin Muslih bin Abdulloh Sa’diy Sheroziy (q.s.) zikrida uning ijodi haqida ma’lumot berar ekan, “Shayxning ash’ori devoni va “B.” masnaviysi va “Guliston” kitobi va soyir kutubi va rasoyimi andin mashhurroqdurki, andin biror nima irod qilg‘-ay”, deb “B.”ni masnaviy asari sifatida izohlagan.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳолоти Саййид Ҳасан Ардашер. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. (насрий баёни билан). Сўзбоши муаллифи, изоҳ ва луғатлар тузувчиси Раҳмонов В. – Т., 1991; Саъдий Шерозий. Бўстон. – Т., 1960; 2009; “Бўстон”дан // Саъдий Шерозий шеъриятидан. – Т., 1976; Айний С. Асарлар. 8-жилд. – Т., 1967; Шомуҳамедов Ш. Саъдий Шерозий. – Т., 1964; Ҳайитметов А. “Бўстон” ва ўзбек адабиёти // Шайх Саъдий ва ўзбек адабиёти. – Т., 2004; “Бўстон” // Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988; Очилов Э. Ҳаёт муаллими // Саъдий Шерозий. Маърифат ёғдуси. – Т., 2015; Ражабова Б. Ўзум сори боқма, сўзум сори боқ. – Т., 2015.*

B.R.

D

DABIR MUHAMMADSHARIF – XIX asrning birinchi yarmida Qo‘qonda yashagan. Mashhur xattot. N. asarlaridan bir necha nusxa ko‘chirgan: 1. “L.M.”. O‘zR FA ShI. Inv. № 726. 1248/1832–33-y.; 2. Terma devon. S.S. O‘sha fond. Inv. № 2223. 1253/1837–38-y.

Kotib qo‘lyozmalarga “Muhammad Sharif al-Mutaxallas bid-Dabir” deb imzo qo‘ygan. Qo‘lyozmalar nafis nasta’liq xatida bitilgan va turli badiiy bezaklar b-n ziynatlangan.

Ad.: *Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. – Т., 1991; Собрание восточных рукописей академии наук Узбекистан. VII. – Т., 1964.*

Muh.A.

DABIRISTON AHLI – maktabdorlar, muallimlar. N. “M.Q” asarining o‘n sakkizinchi faslini “Dabiriston ahli zikrida” deb nomlab, shunday fikrlarni bayon qiladi:

Bayt:

Haq yo‘linda kim senga bir harf
o‘qutmish ranj ila,
Aylamak bo‘lmas ado aning
haqqin yuz ganj ila”.

Ko‘rinib turibdiki, boshdan oxir betakror saj’ san’ati b-n yozilgan mazkur fasl o‘qituvchi, murabbiylarga bag‘ishlangan ta’rif, tahlil, xulosa hamda qissadan hissa sifatida berilgan bir bayt-dan iborat.

Fasl badiiy, ma’rifiy, tarbiyaviy jihatdan mukammal hisoblanishi b-n birga realistik tasvir asosiga qurilgan. Chunki ushbu fasl orqali biz qisman N.ning tarjimayi holini, ya’ni ilk saboq olgan davri, o‘sha davrda va undan keyin ham ustozlari mehnatini, dars jarayonlarini kuzatgani hamda ustozlari, do‘stlariga u yoki bu darajadagi munosabatlarini ham bilib olishimiz mumkin.

Akad. I.Sulton “Navoiyning qalb daftari” nomli kitobining “Dahoning uyg‘onishi” bobida: “...Navoiy tomonidan maktabdor (o‘qituvchi)ga berilgan baho, shubhasiz, ko‘p jihatdan Alishernin g bolaligidagi xotiralariga asoslangandir”, – deb juda to‘g‘ri ko‘rsatgan.

Fasl xulosasi sifatida keltirgan baytni ulug‘ shoirning bugungacha jahon kezgan, sayyor xarakterdagi hamda zamonamizda, deyarli, barcha ziyolilar va yosh avlod yoddan biladigan hikmati, desak to‘g‘ri bo‘ladi. Bayt ochiq ko‘rinishda o‘qituvchi haqida, lekin bob matnidagi yashirin ravishda o‘quvchilar haqida ham gap bor, deyish mumkin. N. unda shogirdlar (o‘quvchilar) haqida keskin fikr bildirsa, o‘qituvchilar haqida mehrmuhabbatga yo‘g‘rilgan so‘zlarini bayon qiladi va o‘z fikrlarini Haq tushunchasi b-n bog‘laydi – Haq so‘zini shoir o‘z leksikasidan bayt u-n saralab olganga o‘xshaydi. Bu so‘zni u o‘z va ko‘chma, bir va ko‘p ma’nolarda qo‘llaganki, buni ziyrak kitobxon qiynalmay tushunadi. Baytda ulug‘ shoir mahorat b-n qalamga olgan asosiy obrazlar, asosan, so‘roq olmoshida ifodalangan *kim*, ya’ni o‘rgatuvchi ustoz va kishilik olmoshida berilgan *sen*, ya’ni o‘rganuvchi o‘quvchilardir. *Ranj – ganj* kabi qofiyada “ila” vosita bog‘lovchisi yordamida yaratgan radifida ham san’atkor shoirning betakror uslubi, yuksak mahorati, so‘zga bo‘lgan mehrini sezish, ko‘rish mumkin. *Ranj – ganj* – N.ning tafakkur dunyosini ko‘rsatuvchi va ijodida eng ko‘p qo‘llangan qofiyalardan. Mutafakkir shoir anglatgan ha-

qiqat – ganj bor joyda ranj borligidir. Hayotni o‘ziga ustoz deb bilgan N. ustozi Sayyid Hasan Ardasherga masnaviy shaklida yozgan tarixiy maktubida ham xuddi shunday qofiyalarni ijod qilgan va o‘zi misolida insonning yil davomida o‘ziga bo‘lgan ishonchini, sabotni mustahkamlab borishi va maqsadga, kamolotga erishish jarayonlarini tushuntirishga harakat qilgan:

Xusho ulki, olamda gar chekti ranj,
Yana olam asbobig‘a topti ganj.

N. “M.Q.”dagi 18-faslni *“Har taqdir bila atfolg‘a haqqi ko‘pdur, agar podshohliqqa yetsa va anga qulluq qilsa xo‘bdur. Shogird agar shayx ulislom, agar qozidur, agar ustod andin rozidur – Tangri rozidur”*, degan o‘zining sharqona fazilat-u lutf b-n sayqallangan hayotiy xulosasi b-n yakunlaydi. Diqqat qilsak, mutafakkir shoir xulosani aynan davlat hamda jamiyatda, raiyatda haq va adolat b-n bog‘liq ishlarni aynan ularni ko‘ruvchi, haq va adolatni qaror toptiruvchi, nazorat qiluvchi amaldorlar, ya’ni shayx-ul islom, qozilar misolida tushuntirib berishi ham o‘ziga xos, betakror ijtimoiy fikr bo‘lib, ham mantiqan, ham poetik jihatdan navoiyona uslubning go‘zal namunasi, ayni paytda o‘ttiz besh yillik tajriba va malakaga ega, so‘zi va maslahati bir bo‘lgan davlat xizmatchisining asrlar davomida ko‘plab ezgu g‘oyalarga sabab bo‘lguvchi hayotiy xulosalaridir.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Султон И. Навоийнинг қалб дафтари. Масъул муҳаррир Каримов Н. 3-тўлдирилган ва тузатилган нашри. – Т., 2010.*

Q.E., B.R.

DAVLATOV Olim Davlatovich (1976, Surxondaryo) – adabiyotshunos, n.shunos, sharqshunos. “Alisher Navoiy she’riyatida Qur’on oyatlari va hadislarning badiiy talqini” mavzusida f.f. bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasini yoqlagan (2017). Alisher Navoiy Xalqaro jamoat fondi direktori (2021 y.dan). D.O.D.ning ilmiy-ijodiy tadqiqotlarida mumtoz adabiy asarlar, ayniqsa, N. adabiy merosi, N. asarlarining nashri masalalari yetakchilik qiladi.

D.O.D.ning “Alisher Navoiy she’riyatida Qur’on oyatlari va hadislarning badiiy talqini” deb nomlangan ishi ilk bobi “Navoiy she’riyatida oyat va hadislarning qo‘llanilish usullari” deb atalib, unda N. lirikasida aynan keltirilgan yoki shakli o‘zgartirilgan oyat va hadislarning qo‘llanish usullari, ularning shoir ijodida tutgan o‘rni, shuningdek, nasriy asarlar tarkibida kelgan she’riy parchalardagi ilohiy va nabaviy hikmatlar hamda basmalaning islomiy mohiyati batafasil tekshirilgan. “Qur’on oyatlari va hadislar mazmunini she’riy san’atlar b-n ifodalash usullari” nomli navbatdagi bobda esa Qur’oni Karimda qayd etilgan obrazlarning talmeh san’ati vositasidagi badiiy ko‘rinishlari, N. nazmida oyat va hadislarning nechog‘li shoironalik b-n tarjima hamda talqin etilgani, shuningdek, ishora san’atining estetik o‘ziga xosliklari sof diniy manbalar va adabiyotshunoslik mezonlari, ilmiy-nazariy tahlillar yordamida ochib berilgan. Birlamchi manbalar asosida o‘rganilgan so‘nggi bob “Navoiy she’riyatida Muhammad (s.a.v.)ning siymosi” tarzida nomlangan. Bobda Muhammad (s.a.v.)ning Qur’oni Karim va hadislarda zikr etilib, o‘zgarishsiz kelgan ism va sifatlari N. tomonidan qay tarzda badiiy mahorat b-n matnga singdirilgani, shoir tomonidan Me’roj kechasi b-n bog‘liq tasvirlarning nihoyatda yorqin badiiy manzaralashtirilgani haqida bahs yuritilgan.

D.O.D. N.ning “N.M.” nomli tazkirasi tarkibidan yuzlab hikoyatlarni tanlab olib, ularning nasriy bayonini yaratgan va kitob holida nashr ettirgan (2015). Muallifning o‘z e’tirofiga ko‘ra, nasriy bayonlar mumtoz asarlarni soddalashtirgan holda o‘quvchilarga taqdim etish tajribasiga suyangan holda amalga oshirilgan bo‘lib, unda asliyatdan uzoqlashmaslikka, istilohlarni aynan berishga harakat qilingan, asar matnida kelgan arabiy va forsiy jumlalar transkripsiyada, tarjimasi esa qavsda berilgan. Shuningdek, har bir hikoyatga umumiy mazmunidan kelib chiqib alohida sarlavha qo‘yilgan. Olimning mumtoz adiblarning asarlari matnlarini hozirgi zamon

o‘quvchisi saviyasi va didiga moslab nashr etishdagi bu urinishlari kelgusidagi shu yo‘nalishdagi ishlarga keng yo‘l ochdi.

Ma’lumki, 1958–1960-yy.da prof. Hamid Sulaymon N. “Chor devon”ining tanqidiy matnini tuzgan va nashr ettirgan. D.O.D. mazkur nashrni qayta chop ettirar ekan (2017), matnshunos sifatidagi iqtidorini ham namoyon qildi: to‘rt kitobdan iborat “X.M.” izchillik b-n tahrir etilib, tuzatish va to‘ldirishlar b-n xushbichim shaklda qayta bosildi.

N.shunos D.O.D. tashkilotchiligida yaratilgan 2 jildlik “Alisher Navoiy: qomusiy lug‘at”i (2016) nafaqat n.shunoslikda, milliy lug‘atshunoslikda ham so‘zning bosh ma’nosi b-n birga uning matndagi ma’no tovlanishlarini ham ko‘rsatib berish yo‘lida tashlangan ilk qadamdir. Nafaqat atama va istilohlar ma’nosini, balki hamisha tirik badiiy so‘zning mohiyatini ham namoyon qilish ko‘zda tutilgan ushbu lug‘atning yaratilishi o‘zbek xalqi madaniy hayotidagi ulkan voqea bo‘ldi. Lug‘at-kitob qamrovning kengligi, buyuk mutafakkir va adibning asarlarida tilga olingan muhim tushunchalarni izohlashda adabiyotshunoslikning so‘nggi yutuqlaridan foydalanib ilmiy tafakkurning bugungi darajasida ish ko‘rilgani b-n ajralib turadi.

D.O.D., shuningdek, N.ning turkiy g‘azallari sharhiga bag‘ishlangan 10 jildlik “Ma‘nolar xazinasi” to‘plamini yaratgan (2021). Har bir g‘azal lug‘at, nasriy bayon hamda sharh va izohlar b-n ta’minlangan. N.ning sir-u sinoatga to‘la badiiyat olamiga oshno etuvchi ushbu sharhlar n.shunoslik taraqqiyotida ham muhim ahamiyatga ega.

D.O.D.ning sa’y-harakati va tashabbusi b-n Alisher Navoiy nomidagi Xalqaro jamoat fondi tomonidan buyuk mutafakkir shoir tavalludining 580 hamda O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 30 yilligiga tuhfa sifatida 30 jildlik “Istiqlol davri o‘zbek navoiyshunosligi” kitobining chop etilgani n.shunoslik tarixida olamshumul voqealardandir (qarang: “Istiqlol davri o‘zbek navoiyshunosligi”).

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. Ҳикоятлар ва ҳидоятлар. О.Давлатовнинг насрий баёни. – Т., 2015; Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Қомусий луғат. 2 жилдлик. Масъул муҳаррир: Ш.Сирожиддинов. – Т., 2016.*

M.A.

DAVLATSHOH SAMARQANDIY (taxallusi; to‘liq ismi: Amir Davlatshoh bin Alouddavla Baxtishoh al-G‘oziy as-Samarqandiy (taxminan, 1436/38−1494, Samarqand) – N.ga zamondosh bo‘lgan adib va shoir. Ota-bobolari temuriylar davlatida katta mavqega ega amirlar, lashkarboshilar bo‘lib o‘tgan. Shuning u-n uni Amir Davlatshoh deb ham ataydilar. Shohruxning nufuzli amirlaridan bo‘lgan otasi Alouddavla o‘g‘lining yaxshi tahsil olishi u-n say’-harakat qilib, uni o‘sha davrning atoqli olimi Abullays Samarqandiyga shogirdlikka beradi. Lekin D.S. uning qo‘lida arab va fors tillari va adabiyoti, tarix va jug‘rofiyani haddi a’losida o‘rgansa-da, saroy xizmatchisi va harbiy kishi bo‘lib, avval Sulton Abusaid, keyin Husayn Boyqaro olib borgan barcha urush-yurishlarda qatnashadi. Taxminan 50 yoshlarida u zoye o‘tgan umridan afsus chekib, barcha rasmiy amallarni yig‘ishtirganicha ilm-u ijod beriladi. N. ta’biri b-n aytganda, xushta’b, darveshtabiat va iste’dodli D.S. bir go‘shaga chekinib, faqr tariqini tutadi va dehqonchilik qilib kun kechiradi. Hirotda bo‘lganida u Jomiy va N.ga yaqinlashib, ularning adabiy davralarida faol ishtirok etgan.

1486-y.da juda katta davr – qariyb 500 yil mobaynida yashab ijod etgan 150 nafas shoir va adib haqidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan “Tazkirat ush-shuaro” (“Shoirlar tazkirasi”) asarini yozib tugatadi. U muqaddima, 7 qism va xotimadan iborat. Muqaddimada asarning yozilish sabablari bayon qilinib, Labid, Mutanabbiy, Ma’ariy kabi 10 ta arab shoiri haqida ma’lumot beriladi. Qaysi hukmron sulola davrida yashab o‘tganiga qarab tabaqaga ajratilgan. 7 qismda esa X–XV asrlarda O‘rta Osiyo, Eron va Iroqda ijod qilgan 100 dan

ortiq qalam ahli hayoti va ijodi yoritiladi. Xotimada muallif o‘ziga zamondosh bo‘lgan Jomiy, N., Xoja Afzal, Shayxim Suhayliy, Abdulloh Marvarid va Osafiy kabi 6 zabardast so‘z san’atkori haqida fikr yuritadi. Tazkirada qator tarixiy voqealar va ijtimoiy hayot manzaralari ham o‘z ifodasini topgan. Ayni jihatdan, u nafaqat adabiy, balki tarixiy ahamiyat ham kasb etadi.

N.ga bag‘ishlab yozilgan ushbu asarda muallif uni yoshligidan 2 til egasi bo‘lib, turkiy she’rda sohibi fan, forsiyda sohibi fazl darajasiga ko‘tarilganini aytadi. “L.M.” dostoni xususida fikr yuritib, unda fasohatning dodini bergan deydi. “Tuhfat ul-afkor” qasidasida ulug‘ shoir ko‘rsatgan mahoratni madh etadi. Turkiy devoni sultonlar, aslzodalar majlisi bezagi ekanligi haqida xabar beradi. Asarlarining dovrug‘i ko‘plab Sharq mamlakatlariga tarqalgani haqida gapiradi, uning ilm-u adabiyotga, iste’dod sohiblariga homiyligi to‘g‘risida fikr yuritadi. Oxirida N.ga bag‘ishlangan qasidasini keltiradi. Unda, jumladan, “Muhammad (s.a.v.) qadami sharofatidan Madina aziz bo‘lgani kabi Hirot ham N. tufayli olamning fazilatli joyiga aylandi” deb lutf etadi:

On chunon, k-az maqdami sayyid shuda
Yasrib aziz,
Gasht dor ul-fazli olam az vujudi o‘ Hiri.

D.S. Uloiy taxallusi b-n she’rlar ham yozgan. Jomiy va N.ga bag‘ishlangan qasidalari mashhur. Uning ayniqsa, Jomiy ijodiga ixlosi tom edi. Lekin qasida, g‘azal, ruboiy va masnaviylaridan namunalar va parchalar o‘zining tazkirasi orqali bizgacha yetib kelgan. N. “M.N.”da uning quyidagi matla’sini keltiradi:

Zihi az oftobi orazat chashmi
jahon ravshan,
Zi chashmi ravshani karda
dilamro xonumon ravshan.

Tarj.: Qanday yaxshi: yuzing quyoshidan jahon ko‘zi ravshan, bu ravshan ko‘z dilim uyini ham ravshan qildi.

N. uning tazkirasiga ham yuqori baho beradi: “Majma’ ush-shuaro” tasnif qilibdurkim, har kishi ani mutolaa qilsa, musannifining iste’dod va kamolin ma’lum qilur”.

N. “M.N.” tazkirasida D.S. va uning asarini tilga olgan va yuqori baholagan. U o‘z tazkirasining beshinchi majlisini D.S. zikri b-n boshlaydiki, bu hol unga bo‘lgan hurmatidan dalolat beradi. N. D.S.ning shaxsiyati haqida ham iliq so‘zlar bitadi. Uni “xushtab’ va darveshvash va ko‘p salohiyatlig‘ yigitdur” deb ta’riflaydi. U D.S.ning “Tazkirat ush-shuaro”sini “Majma ush-shuaro” deb ataydi. Shuningdek, N. o‘sha paytda D.S.ning vafoti haqida xabar kelganini aytib o‘tadi. Tazkirada D.S.ning forsiy tilda bitilgan bir matla’si keltirilgan.

D.S. tazkirasi 1958-y.da – Tehronda nashr etilgan. Tazkira qisqartirilgan holda o‘zbek tiliga tarjima qilingan va “Shoirlar bo‘stoni” nomi b-n mamlakatimizda nashr etilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Давлатшоҳ Самарқандий. Тазкират уш-шуаро. Теҳрон, 1998 (ҳ.-ш.); Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар бўстони (“Тазкират уш-шуаро”дан). Аҳмедов Б. тарж. – Т., 1981; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Ж. 1. – Д., 1988; Аҳмедов Б. Давлатшоҳ Самарқандий. – Т., 1967; Ҳайитметов А. Адабий меросимиз уфқлари. – Т., 1997.*

Q.E., E.O.

DAVOVINI ARBAA – to‘rt devon. Q.: “Xazoyin ul-maoniy”.

DAVOLI – “S.I.” dostonidagi epizodik personajlardan birining nomi. Doroga qaram bo‘lgan “Shervon mulkidin” kelgan lashkarboshi. Iskandar xiroj to‘lashdan bosh tortganda, Doro unga qarshi urush ochgan va D. o‘z askarlari b-n urushda qatnashgan.

Farangisdek Xovaron mulkidin,
Davoli kibi Shirvon mulkidin.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

A.A., M.A.

DADABAYEV Hamidulla Aripovich (1947, – Toshkent) – 1971-y.i ToshDU (hozirgi O‘zMU) Roman-german fakultetini tugatib, 1977-y.ga qadar avval laborant, so‘ngra nemis tili o‘qituvchisi bo‘lib ishlagan. 1981-y.da O‘zRFA Til va adabiyot instituti qoshidagi Ixtisoslashgan Kengashda “Eski o‘zbek tilidagi harbiy leksika” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini prof. N.Baskakov ilmiy rahbarligida himoya qilgan.

Aspiranturada o‘qish kezlarida (1977–1980) D.H.A. O‘zR FA TAI Tarixiy leksikologiya va leksikografiya bo‘limi olimlari tomonidan 1983–1985-y.da “Fan” nashriyotida chop etilgan to‘rt jildlik “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”ni nashrga tayyorlash ishlariga jalb qilindi. Olim Q.Muhitdinov (II,III,IV) va N.Xo‘jayev (Chustiy) (II) hamkorligida N. nasriy asarlari lug‘atini tuzish qatori, lug‘at kartoteka fondi materiallarini to‘plash hamda qo‘lyozmalarni nashrga tayyorlashdagi texnik ishlarni bajarishda jonbozlik ko‘rsatdi.

D.H.A. N. asarlari so‘z boyligi, xususan, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va harbiy terminlar tadqiqiga doir bir qancha maqolalar nashr qildi, shoir asarlarida qo‘llangan qadimgi turkiy til va eski turkiy til elementlari, astroponimlar, sinonimlar, evfemizmlar borasida izlanishlar olib bordi. “Navoiy hikmatlari” nomli uslubiy qo‘llanmani joriy va lotin grafikasi asosidagi yangi o‘zbek alifbosida e’lon qildi.

E.U.

DADU DOM – yirtqich va yirtqich bo‘lmagan hayvonlar, ya’ni go‘shtxo‘r va o‘txo‘r hayvonlar. Ba’zi yovvoyi va xonaki hayvonlar ham ko‘zda tutiladi. N. ijodida ham D.D. obrazi uchraydi. M-n:

Gah yori musohibim dadu dom,
Gah tutmay ular bila ham orom.

Ad.: *Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Фарҳанги забони тожик. Жилд 1. – М., 1969; Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. – Душанбе, 1987; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Т., 1983.*

E.O.

DAJJOL (ar. – aldamchi, firibgar) – islom diniga ko‘ra, qiyomatdan oldin paydo bo‘ladigan va dindorlarni Xudo ko‘rsatgan yo‘ldan ozdiradigan bir ko‘zli odamsimon maxluq. D. haqida bir qator hadisi shariflar bor. Shulardan biri “Sahih Muslim”da Imron ibn Husayn (r.a.)dan rivoyat qilingan hadisda Rasulullo (s.a.v.): “Odam yaratilishidan to qiyomatgacha Dajjoldan ko‘ra (fitnasi va shon-shavkati) kattaroq maxluq yo‘qdir”, deganlar (Muslim rivoyati).

Hadislarda D.ning oxirzamon fitnalaridan, qiyomat alomatlaridan biri sifatida odamlarni yo‘ldan ozdirishi, aldashi va kufr yo‘liga yo‘llashi, oxir-oqibat D.ga qarshi Imom Mahdiy chiqishi va musulmonlarga yordam berishi va ko‘kdan tushib kelgan Iso Masih D.ni o‘ldirishi aytiladi. N. “T.A.H.” asarida bu hodisaga ishora qilib yozadi: “Ba’zi debdurlarkim Iso (a.s.) olti yildin so‘ngra, har taqdir bila va’da budurkim, Mahdiy zuhur qilg‘ondin so‘ngra Iso (a.s.) osmondin ingoy, dog‘i Dajjolni halok qilib, soyir milal ahlin xotamun-nubuvva millatig‘a dalolat qilg‘ay”. N. ishora qilgan D.ning o‘ldirilishi haqida Ibn Moja “Sunan”ida va Hokim “Mustadrak”ida Abu Umoma (r.a.)dan rivoyat qilgan hadisda bayon qilingan. Bayt ul-Maqdisda musulmonlar imomi ularga bomdod namozini o‘qib berib turganida, Iso ibn Maryam tushib keladi. Musulmonlar imomi uni ko‘rib, taniydi va orqaga chekinib, siz namoz o‘qib bering, deydi. Shunda Iso (a.s.) kelib, qo‘lini musulmonlar imomi yelkasiga qo‘yadi va: “Yo‘q, siz oldinga o‘ting va namoz o‘qib bering, siz uchun namozga iqomat aytildi”, deydi.

"...musulmonlar imomi namozni tugatgach, Iso turadi, musulmonlar uning ortida turadilar. Iso Bayt ul-Maqdis eshigini ochib, Masih Dajjolni qurollangan yetmish ming yahudiy b-n turganini ko‘radi. Dajjolning ko‘zi Allohning payg‘ambari Isoga tushishi b-n suvga tushgan tuzdek eriydi va qocha boshlaydi. Iso uning ortidan quvib borib, Falastindagi Lud darvozasi oldida tutib oladi va uni o‘ldiradi. Xalqlar D.ning yomonligidan qutuladilar".

N. asarlarida D. timsolini majoziy ma’noda eng yomon odam sifatida keltiradi. U "M.Q." asarining 45-tanbehida sohibdil (sof ko‘ngil)lik va oshiqlikni da’vo qilgan kishining yolg‘on aytishi va har qanday "yuraksiz" odam sofdil bo‘lavermasligi haqida to‘xtalib, shunday xulosani ilgari suradi:

Ham ani Dajjol topib, ham nabi,
Iso bila teng bo‘lurmu markabi?

Maz.: D. ham sohibdil bo‘laversa, nabiylar ham sohibdil bo‘laversa, unda Iso (a.s.) b-n uning markabi teng bo‘ladimi? N. bu o‘rinda yaxshi b-n yomonning aslo teng bo‘lmasligiga ishora qilgan.

N. "N.Sh." dagi bir qit’asida yuz ming nopok, nursizlikda tengi bo‘lmagan D.ga o‘xshash erkaklardan pokiza ayollarning qadam izlari afzalroq ekanini aytadi va bunga Lut o‘g‘li Kan’onning kofir bo‘lgani hamda Rasullulloh (s.a.v.) ning qizlari Fotima (r.a.)ning dunyoga ulug‘lik mash’alini yoqqanligini misol qilib keltiradi.

Yuz tuman nopok erdin yaxshiroq
Pok xotunlar ayog‘ining izi,

Lut o‘g‘lin ko‘rki soldi tiyralik
Ding‘a nafs ilgida tab’i ojizi.

Dahr aro yoqti siyodat mash’alin,
Pokravliqtin rasulullоh qizi.

Shuningdek, ulug‘ shoir "H.A."ning 4-maqolatida xirqa kiygan riyokor shayxlarni tanqid qilib, zohiri chiroyli ko‘ringani b-n botini fisq-u fasodga to‘laligini ta’kidlab, shunday deydi:

Ruhni nafs olida qul aylabon.
Hullani Dajjolg‘a jul aylabon.

Dev ila shayton urub ichinda jo‘sh,
Tang‘a maloik paridan pardapo‘sh.

Maz.: bu riyokor shayxlar nafs oldida ruhni qulga aylantirganlar, toza ipakni esa D.ning ustiga yopganlar. Ularning ichida dev b-n shayton qaynaydi, tanlari esa farishtalardan to‘kilgan pat b-n pardalangandir.

N. asarlarida qo‘llangan D. timsoli shoirning soxtakor va riyokorlarni fosh qilish u-n fikr va qarashlarini yanada yorqinroq aks ettirishga xizmat qilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Ислом энциклопедияси. – Т., 2017; Абдулқодир Абдураҳим ўғли. Ақоид дарслиги. – Т., 2007.*

I.H.

DAYR (ar.) – nasroniylar va otashparastlar ibodatxonasi, butxona, otashkada. D. majoziy ma’noda mayxonani, "hammaslak pokboz oshiqlar davrasini", "zoti ahadiyatdan huzurlanish"ni bildiradi. Mumtoz she’riyatda dunyo, jahon, olam mazmunlarida ham talqin qilingan. Tasavvuf istilohotiga ko‘ra, D. Alloh vasli, ilohiyot huzuri, ma’naviy, ruhiy poklanish maskanidir. Bundan tashqari, D. deganda, oriflar majlisi, komil insonlar suhbati ham nazarda tutiladi. Dayr piri yoki piri xammor − mayxona piri demakki, tariqat piri, ma’naviy peshvodir. N. ijodida ham D. timsoli keng qo‘llangan. M-n:

May berur bo‘lsang, manga dayr ichra ber,
ey mug‘bacha
Kim, qo‘yay boshimni qo‘ysam piri
xammor ollida.

Maz.: Ey mug‘ bola, menga may uzatadigan bo‘lsang, D., ya’ni mayxonada bergilki, mastlikda boshimni qo‘yadigan bo‘lsam, piri xammor – may sotuvchisining oldida qo‘yay.

Shuningdek, N. she’riyatida *mug‘ dayri, dayri fano* kabi poetik birikuvlar ham shoir asarlarining mantiqiyligini, irfoniy, falsafiy ko‘lamdorligini oshirgan. *Dayri fano* – yo‘qlik dayri, mayxona. Tasavvufda o‘zlikdan, bu olamning o‘tkinchi orzu-istaklaridan butkul voz kechish demakdir. Shu b-n birga, u ko‘ngil Haq ma’rifatidan, poklik sharobidan bahramand bo‘ladigan joy ma’nosida qo‘llanadi. *“Fano dayri”*ga kirib, *“dayr piri”*ning qo‘lidan boda ichgan kishi haqiqiy faqr sanaladi. Uning u-n eski safol b-n oltin qadahning qiymati teppa-teng:

Chun fano dayrig‘a kirdim boda tut, ey piri dayr,
Zarf xoh eski safol o‘lsun va gar oltun qadah.

Sharq mumtoz adabiyotda, N. she’riyatida ham D. timsoli, ko‘pincha, mug‘ atamasi b-n yonma-yon keladi. “Mug‘”ning lug‘aviy ma’nosi otashparast bo‘lib, bu so‘z ba’zan otashparastlar ruhoniysini ham bildiradi. Majoziy mazmunda mug‘ − “piri komil”. Mug‘ D.i − otashparastlar ibodatxonasi, majozan esa − mayxona. Piri mug‘on − mug‘lar piridan maqsad − “komil inson bo‘lib, may sotuvchi (mayfurush) so‘zi o‘rnida qo‘llanadi va ruhoniy rahbar ma’nosini anglatadi”. Mug‘bacha − mug‘lar xizmatidagi bola bo‘lib, so‘fiyona adabiyotda u “sodiq murid, chin oshiq” va soqiy timsoli hisoblanadi.

Navoiy, chunki mug‘ dayrida tutti
mug‘bacha sog‘ar,
Ichib may, kofiri ishq o‘lmasang,
ko‘rgung pushaymonliq.

Maz.: Navoiy mug‘ D.i – otashparastlar ibodatxonasi, ya’ni mayxonada mug‘ bola qadah uzatdi, bu mayni ichib, ishq kofiri bo‘lmasang, pushaymon bo‘lasan.

D., dayr piri, mug‘, mug‘bacha, mug‘ D.i so‘zlarining bir-biriga nisbati bo‘lib, ular birgalikda yagona zanjirni, uyg‘unlikni tashkil etadi. A.Rustamovning yozishicha, mug‘bacha o‘rnida soqiy yoki boshqa so‘z ishlatilsa, ular D. so‘ziga uyg‘unlashmaydi. “Soqiy” so‘zi mayxona, maykada kabi so‘zlarga uyg‘undir. Mohir san’atkorlar so‘zlarni ramziy mazmunda ishlatganda ham ularning asl lug‘aviy ma’nolarini nazardan chetda qoldirmaydilar”. Demak, N. ijodida dayr istilohi ma’naviy-ruhiy poklanish ramzi sanaladiki, buni ko‘rsatilgan misollarning o‘ziyoq tasdiqlaydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Рустамов А. Шоирнинг биринчи ғазали // “Шарқ юлдузи”, 1987 йил, 2-сон; Ҳаққул И. Ирфон ва идрок. – Т., 1998. Саййид Жаъфар Сажжодий. Фарҳанги мусталиҳоти урафои ва мутасаввифа. – Теҳрон, 1332 (ҳижрий); Асадов М. Соқийнома: тарих ва поэтика. – Т., 2020.*

M.A.

DAYRI FANO – 1. Foniy dunyo. 2. Yo‘qlik olami. 3. Tasavvufda bexudlik olami; foniylik martabasi. Ya’ni hayvoniy nafsdan qutulgan, ruhan tirik, ma’naviy jihatdan yetuk kishilar majlisi, ularning botiniy olami. M-n:

Hushyor ani bilgil bu fano dayrida, ey shayx –
Kim, to‘lg‘ucha paymonasi bir lahza ayilmas.

Mumtoz she’riyatda ko‘pincha dayr piri – shayxga, D.F.i – xonaqohga zid qo‘yiladi:

Xonaqohda boda ichkan emin ermas shayxdin –
Kim, fano dayridadur dor ul-omondurkim, ichar.

Quyidagi baytda esa N. ma’naviy haqiqatlarni kashf etgan odamlar huzurini qo‘msash, ular hikmatidan bahra olish tuyg‘usini ifodalagan:

Chun fano dayrig‘a kirdim boda tut, ey piri dayr,
Zarf xoh eski safol o‘lsun vagar oltun qadah.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011;*

Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005; Рустамов А. Шоирнинг биринчи ғазали // "Шарқ юлдузи", 1987, № 2; Комилов Н. Тасаввуф. – Т., 1996; Ҳаққул И. Ирфон ва идрок. – Т., 2007; Очилов Э. Бир ҳовуч дур. – Т., 2011.

E.O.

DALLAT UL-MUHTOLA – Sharq adabiyotida ayyorlik, makkorlik va hiylagarlik ramzi o‘laroq, bilinadigan ayyor xotin obrazi. N. "F.Sh."da Shirinning vafoti to‘g‘risidagi mash'um xabarni Farhodga yetkazgan kampirni D.M.ga o‘xshatgan.

Dostonning 48-bobi sarlavhasida N. zoli makkora – makkor ayol, Farhodkushi xunxora deb ta'riflangan kampir achchiq tili b-n Farhodning qatliga sabab bo‘lgani, Salosil qo‘rg‘oni joylashgan tog‘ga ajaldek yetib, begunoh oshiqning hayot qushi qasdiga makr rishtasi domin ochib, yolg‘on ko‘z yoshlar to‘kib, o‘lim toshlarini yog‘dirgani haqida xabar beradi.

Nomard Xisravshoh tomonidan o‘g‘li Parvez orqali yollangan qotil – qaddi ikki bukilgan bu qari kampirning hiyla-nayrangini N. falakning firiblariga mengzaydi. Yuzlaridagi ajinlar yolg‘-on-u aldovlaridan hosil bo‘lgan chiziqlar bo‘lib, umrida biror marta bo‘lsin rost so‘zlamagan bu kampirning qo‘lida, hatto tosh ham mumdek erir edi, deydi. Quyoshni Zuhalga oshiq qilgan bu firibgarni falak xola, D.M. esa ona deb bilar edi. Demak, D.M.day makrda tengsiz deb nom chiqargan hiylagar ham ona deb biladigan makkorani suratini ustalik b-n chizgan. N. uning ichki olamini ham chirkin va qora ranglarda tasvirlaydi:

Qadi ikki bukulgan pir zole,
Falak zoli kibi hiylat sigole.

Xututi makrdin yuzinda yuz chin,
Tiliga o‘tmayin umrida so‘z chin.

Atab ko‘k pir zoli xola oni,
Ano deb Dallat ul-muhtola oni.

Yetib tadbir ila ul xolani bikr,
Har oqshom Dallat ul-muhtolani bikr.

Bu o‘rinda N. mubolag‘a san'atidan foydalangan. Shuningdek, insoniyatning azaliy g‘animi bo‘lgan makr, hiyla va qabohatni D.M. talmehini o‘rinli qo‘llash b-n ko‘rsatib bergan.

Ad: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Навоий асарларининг луғати. Тузувчилар: Порсо Шамсиев, С.Иброҳимова. – Т., 1972; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик. 1-жилд. – Т., 1983.*

B.R.

"DAM BU DAMDUR" – sayyor xarakterdagi xalqona hikmat. Xalq dostonlari, jumladan, "Alpomish" dostoni matnida ham uchraydi. N. "M.Q."ning 124-tanbehida ushbu xalqona sayyor hikmat asosida go‘zal bir shoh bayt yaratgan: "Bir turk bu ma'nida debdurkim: "Dam bu damdur".

Bayt:

Moziy-u mustaqbal ahvolin takallum ayla kam,
Ne uchunkim dam bu damdur, dam bu damdur,
dam bu dam.

Sayyor xarakterdagi bu xalq hikmati ulug‘ shoirga juda ma'qul kelgan bo‘lsa kerak, u bu hikmatni takrir san'ati yordamida qo‘llagan.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. МАТ. 10 жилдлик, 9 жилд. – Т., 2011.*

B.R.

DARVESH – darveshlik yo‘liga kirgan, tariqatga mansub shaxs. Yassaviy "Faqrnoma"sida ta'kidlaganki, "Har kim darveshlik da'vosini qilsa, avval Haq amriga bo‘ysunib, shariat amri b-n bo‘lg‘ay. Va botil ishlardin va bid'at ishlardin parhez qilg‘ay, kecha qiyom bo‘lmag‘uncha, kunduz xizmat qilmag‘uncha, shayxlik da'vosini qilsa, botil turur".

Tark maqomlarida ko‘ngilni poklash, tom bir taslimiyat ichra tavakkal ishonch – e'tiqodini kamolga yetkazish, uzluksiz ravishda ishq otashida toblanish, o‘tmish u-n "o‘lib", kelajak

u-n qayta “tug‘ilish” va ruhoniy erkin, to‘laqonli ozod umr kechirish D.larga xos fazilat va sifatlardir.

“N.M.”da keltirilgan bir rivoyatga ko‘ra, yozning issiq va to‘zonli bir kunida Shayx Abu Ali Marvaziyni ko‘chada ko‘rib qolishib: “Ey Shayx, bu jaziramada qayon borursiz?” – deb so‘rashibdi. U javob beribdi: “Falon darveshlar xonaqohigaki, men bitibmenki, har kun osmondin darveshlarga yuz yigirma rahmat yog‘ar. Xususan, hozir – choshgoh paytida. Boradurmenki, anda nonushta qilg‘aymen, shoyadki, ul rahmatlardin menga ham nasib bo‘lg‘ay. Ulug‘lar debdurlarki, o‘zingni alar orasida (ya’ni darveshlar orasida – I.H.) sig‘ur va o‘zingni alardin va alarning do‘stlaridin ko‘rguz, agarchi bilgaysenki, ne nav’ rasvosen... Tongla so‘rasalarki, “Kimsen?”, degaysenki, alarning (darveshlarning – I.H.) do‘stlaridanmen va so‘zlarini eshitsang, agarchi ma’nosin bilmasang bosh tebrat, to tongla degaysenki, alarning bosh tebratuvchilaridanmen...”

D.larga yaqinlik – nafs-u havodan yiroqlashuv demak. D.lar suhbatini tinglash – Haq sirlaridan ogohlikdir.

Xoja Bahouddin Naqshbanddan: “O‘zgalarning ko‘nglidagini bilib olish darveshlarda qanday paydo bo‘ladi?” – deb so‘ralganida, “Ko‘zi ochiqlik va anglab olish farosat nuri orqali bo‘lib, Haq subhonallohu buni darveshlarga ato qiladiki, “fainnahu yanzuru binurillahi” – “Chunki u (ya’ni darvesh – I.H.) Alloh nuri orqali boqadi”, – deb javob qaytargan ekanlar.

N. dunyoqarashida oshiqlik, oriflik, faqrlik b-n chin D.lik qariyb bir maqomda turadi. Shoir D. maslagi va himmatini, hatto shohlikdan ham ustun qo‘yadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005.*

I.H.

DARVESHBEK (1491-yilda halok bo‘lgan) – XV asrning ikkinchi yarmida yashagan Samarqand beklaridan. Uni Mir Darvesh deb ham ataganlar (mazkur davrda Mir Darvesh Muhammad tarxon ismli boshqa bir amir ham yashagan). D. oliynasab beklar avlodidan edi. Buni N. alohida ta’kidlaydi va “M.N.”da “Mirzo Ali Igu Temur o‘g‘lidur. Nasabi xud olam ahlig‘a zohirdur”, – deb yozadi. Ma’lumki, N. Samarqandda yashagan davrida u yerda ko‘plab do‘stlar orttirgan. Ana shulardan biri D. edi. Bu ikki shaxs o‘rtasida do‘stlik va yaqinlikning yuzaga kelishi bejiz emas. Zero, D. oliynasab bo‘lishi, Samarqand hukmdori Sulton Ahmad Mirzo saroyida xizmat qilishi b-n bir paytda ko‘plab fazilatlarga ega, kamolot sari intiluvchi yigit bo‘lgan. Shuning u-n N. uni “Hasabi jonibidin ham nasabcha sharif bor erdi. Hasab va nasab bila orasta yigit erdi” deb ta’riflagan. Ular o‘rtasidagi do‘stlik munosabatlari N. Hirotga qaytgandan keyin ham to D. vafotiga qadar davom etgan. D. 1491-y. Sulton Ahmad Mirzoning Toshkentga qilgan harbiy yurishi vaqtida halok bo‘lganda N. juda qattiq qayg‘urgan va afsus chekkan. Uning bu voqea haqida “Hayf va yuz hayfki Toshkand yurushida zoye’ bo‘lg‘onlar orasida talaf bo‘ldi” deb yozishi shundan dalolat beradi. D.ning xotirasini buyuk shoir umr bo‘yi yuragida saqlagan. Buning yaqqol dalili “S.” asaridir. Unda N. olamdan o‘tgan ko‘plab qadrdonlari sirasida D.ni ham yodga oladi. Uning hamda yana bir do‘sti Mirzobekning o‘ziga qanchalik yaqin va aziz bo‘lganliklarini quyidagi baytlarida ifoda etadi:

Biri ham yor menga, ham farzand,
Jonga orom-u yurakka payvand.

Biri hamsuhbat-u hamdard-u rafiq,
Tuqqonimdin dog‘i yuz qatla shafiq.

Ul biri oti chu mazkur bo‘lub,
Mirzobek ila mashhur bo‘lub.

Bu biri ismini aylarda xitob,
Mir Darvesh debon shayx ila shob.

N.ning “M.N.”da bergan ma’lumoti D.ning iste’dodli shoir ham bo‘lganini ko‘rsatadi. Taz-

kirada uning ijodidan namuna sifatida bir bayt she’r keltirilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий Соқийнома. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 2002; Асадов М. Соқийнома: тарих ва поэтика. – Т., 2020.*

Q.E.

DARVISH ALIBEK (Amir Nizomiddin Darvish Ali) – N.ning ukasi. O‘z faoliyatini saroyda kitobdorlikdan boshlagan. Shu sababli ba’zi manbalarda Darvish Ali kitobdor deb ataydilar. Shuningdek, D.A. ko‘kaltosh deb atash ham uchraydi. 1480–1481-y.dan boshlab muhrdor bo‘lgan. 1486-y.da bek (amir) rutbasini olgan va Balx viloyati hokimi etib tayinlangan. 1490-y. da hokimiyatdan chetlatilib, qamoqqa olingan. Keyin afv etilib, Sulton Husaynning amirlari qatorida o‘z faoliyatini davom ettirgan. 1494-y.da hajga borgan. 1501-y.da iste’foga chiqqan. 1503-y.da Shayboniyxon Balxni qamal qilganda uning huzurida bo‘lgan. 1511-y.da Qunduzda Bobur xizmatiga kirgan. 1512-y.da Bobur Samarqandni olganda ham u bilan bir edi. Vafot etgan yili ma’lum emas.

N.dek kishining tug‘ishgan inisi bo‘lishiga va uzoq vaqt kitobdorlik mansabida turganiga qaramay D.A. badiiy ijod b-n shug‘ullanmagan. U tarixda, asosan, N.ning ukasi, Husayn Boyqaroning beklaridan biri sifatida qolgan. O‘zining arbob, amirlik faoliyatida u akasining siyosiy yo‘lini qo‘llab-quvvatlagan, Majiddinning bosh vazirlikdan ketishi va jazoga tortilishida D.A.ning ham xizmati bo‘lgan. Aynan u ko‘targan isyondan so‘ng Sulton Husayn Majiddinning ortiq bu mansabda qolishi maqsadga muvofiq emasligini anglagan va uni bo‘shatishni o‘ylay boshlagan hamda keyinroq buni amalga oshirgan.

Ammo D.A.ning bu jasorati unga qimmatga tushdi. U hokimlikdan bo‘shatilib, zindonga solinadi. O‘sha yili Sulton Husayn mirzo Hisorga yurish qilgan, chunki Hisor hukmdori Sulton Mahmud mirzo D.A. isyon ko‘tarmoqchi bo‘lganda unga xayrixohlik bildirgan va yordam berishni va’da qilgan, ya’ni ular o‘rtasida ittifoqchilik yuzaga kelgan edi. Shu sababli Sulton Mahmudga karshi harbiy harakatlar boshlagan Husayn Boyqaro bunday paytda D.A.ning ozodlikda bo‘lishini xavfli deb hisoblagan. Shunday qilib, sirtdan qaraganda D.A.ning qamoqqa olinishi o‘sha vaqtdagi siyosiy vaziyat tomonidan taqozo etilgandek tuyiladi. Lekin aslida bunday bo‘lmagan. D.A. Sulton Husaynga yana itoat bildirib, sulh tuzilgandan so‘ng uning Hisor hukmdori b-n ittifoqchilik munosabatlari barham topgan, sulhdan so‘ng o‘ziga qarashli barcha narsalarni sultonga topshirgan va hokimiyatdan bo‘shatilgan D.A. hech qanday xavf tug‘dira olmasdi, binobarin, uni zindonband qilishning hech hojati yo‘q edi. Bu ish shoir dushmanlarining kirdikorlari bo‘lib, bir tomondan, Navoiyni obro‘sizlantirishi, davlat va saltanatdagi mavqeyiga putur yetkazish, ikkinchi tomondan, unga ruhan zarba berish maqsadida amalga oshirilgan edi. Aftidan, masalaning bu tomoni tez orada Sulton Husaynga ham ayon bo‘lib qolgan. Uning bu xususda maxsus farmon chiqargani shundan dalolat beradi. Farmonda amir Alisherning inisi ayrim sabablar tufayli qamoqda tutib turilgani, bu vaqtinchalik chora ekani aytilib, ushbu voqeaning amir Alisherga hech qanday dahli yo‘q ekanligi ta’kidlangan. Amirlar, ayonlar va arkoni davlat unga oldingidek hurmat va ehtirom ko‘rsatishlari lozimligi uqtirilgan edi.

N.ning yuqoridagi voqea munosabati b-n bitilgan maktubi ham bor va u “M.” tarkibiga kirgan. Chuqur pafos va dard b-n yozilgan ushbu xat shoirning ukasining zindonband qilinishidan qanchalik iztirobga tushganini ko‘rsatadi. Ikkinchi tomondan, unga N.ning kuchli irodasi ham namoyon bo‘lgan. O‘zi chekayotgan iztiroblarga qaramay u D.A.ga tasalli beradi, tez orada ozod bo‘lishiga, bu voqealarning xayrli yakun topishiga uni ishontirishga harakat qiladi. Chindan ham D.A. ko‘p o‘tmay zindondan xalos bo‘lib, yana amirlar sarasida o‘z o‘rnini egallaydi. Lekin u b-n Sulton o‘rtasidagi munosabatlardagi

sovuqlik, gina saqlanib qoladi. D.A.ning N. vafot etishi bilanoq iste'foga chiqishi va Balxning Fayziobod qishlog'iga jo'nab ketishining sababi ham shunda edi.

Akasi va uning atrofidagi progressiv arboblar singari D.A. ham fitnachi a'yonlarning kirdikorlariga qarshi turgan, mamlakatda tinchlikni saqlashga qaratilgan sulhparvarlik yo'lini yoqlagan. Manbalarda uning bir necha marta qurolli nizolar paytida tomonlarni kelishtirish u-n vositachi, elchi missiyalarini bajargani qayd etilgan.

N. "S.I."dostonining 88-bobini D.A.ga bag'ishlagan. Bob "Hokim surat-u darvish siyrat, balki darvish ismi hukumat qism, ya'ni axaviy maobi davlat iyobqa mavoizoso kalom va nasoyihi molokalom demak", deb nomlangan. Unda ulug' shoirning ukasiga nasihatlari o'z badiiy ifodasini topgan. Aftidan, D.A. boshqa saroy a'yonlaridek sertavoze bo'lmagan, shuningdek, tilyog'lamalik ham unga yot bo'lgan, kishilar b-n muomalada, hatto shoh huzurida ham ortiqcha takalluf qilib o'tirmagan. Saroy muhitida bunday xislatlar kishining boshiga balo keltirishi mumkin edi. Shuning u-n N. ukasiga shoh b-n yuzma-yuz muloqotda ham, yozishmalarda ham ehtiyot bo'lish va darbor odobiga rioya qilishni tayinlaydi:

Vale arzida asra sharti adab
Ki, tarki adab bahra berur taab.

Menga so'z yozardek anga yozmag'il,
Nishoting binosi tubin qozmag'il.

Shoh – deb yozadi Navoiy, inoyat chog'i lutf qilishi, lekin azob-uqubatlarga ham g'iriftor etishi mumkin:

Shoh, ar lutf qilsa inoyat chog'i,
Vale aylay olur uqubat dog'i.

Agar keyinchalik D.A.ning boshiga tushgan ishlarni esga oladigan bo'lsak, bu o'rinda shoir bitgan so'zlarining bejiz emasligi ma'lum bo'ladi.

Hukmdor b-n munosabatga oid mulohazalardan so'ng raiyatga qanday muomala qilish haqidagi pand-nasihatlar bayon etilgan va bunda yana bir bor buyuk shoirning adolatparvarligi, xalqparvarligi o'zini namoyon qiladi:

Adolat bila elni qil bahramand,
Ki yaxshig'a ketsun yamondin gazand.
Navosiz ulusning navobaxshi bo'l,
Navoiy yomon bo'lsa, sen yaxshi bo'l.

Bu so'zlar garchi shoirning ukasiga nasihat tarzida bitilgan bo'lsa-da, aslida uning barcha insonlarga murojaati, ularni ezgu ishlarga chorlovchi da'vati edi.

Ад.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Эргашев К. Некоторие аспекти государственной деятелности Алишера Навои. – Т. 2009; Хондамир. Хабиб ус-сияр. – Т., 2010; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985.*

Q. E.

DARVESH MUHAMMAD GOZUOGOHIY – N.ga zamondosh bo'lgan tasavvuf vakillaridan. Hirotda yashagan va shu yerda vafot etgan. Gozurgohda dafn qilingan.

N. "N.M."da u haqda ma'lumot bergan. Uning yozishicha, D.M.G.ning asl ismi Maqsud Ali bo'lib, sipohiylik qilgan. O'sha paytlarda ham qalbida darveshlikka moyillik bo'lgan. Shu tufayli keyinchalik xizmatni tark etib, darveshlik yo'liga kirgan. Mavlono Muhammad Tobadgoniyga qo'l berib, uning muridlari qatoridan o'rin olgan. Ma'lumki, mazkur pir N. davrida Hirot mashoyixi ulug'laridan hisoblangan. N.ning ham unga ixlosi bo'lgan va undan iltifot topgan. D.M.G. Mavlono Muhammad Tobadgoniy irshodi b-n sulukka mashg'ul bo'lib, tez orada uning boshqa barcha as'hoblaridan o'zib ketgan. Mavlono ham unga o'zga muridlaridan ko'ra ko'proq inoyat ko'rsatgan. "N.M."da N. bu haqida shunday yozadi: "Va andoq mustahsan muomalag'a muvaffaq bo'ldiki, oz fursatda Mavlono hazratlarining kibor as'hobi ani musallam tutarlar erdi.

Va g‘olibliqqa pisand qilurlar erdi. Mavlononing ham inoyat nazari muridlaridin anga ko‘prak erdi”. Shu tariqa D.M.G. faqr va fanoda yuksak maqomlarga erishib, olamdan o‘tgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик. 10-жилд. – Т., 2011.*

Q.E.

DARVESH DEHAKIY – taxallusi. Asl nomi Azizulloh, (1426-y. Qazvin yaqinidagi Dehak qishlog‘i – 1531/32) shoir. Asosiy kasbi to‘quvchilik va bog‘dorlik bo‘lgan. D.D. devonida 845 ta g‘azal mavjud, ularning aksariyati ishqiy, lekin ijtimoiy-siyosiy ruhdagilari ham bor. D.D. zamonadan shikoyat qiladi, din peshvolarining firibgarligi, inson sha’niga zid bo‘lgan xislatlarni qoralaydi, hayotsevarlik va mehnatni targ‘ib qiladi, xalq orzu-istaklarini bayon etadi. D.D. lirikasida Farhod obrazi orqali xalq va uning manfaatlari ifoda qilingan. “So‘zda Darvesh Majnun emas, Farhod bo‘lgil, chunki g‘azal tavrida ham ishq, ham hunar bo‘lishi kerak” deydi shoir. D.D. to‘quvchilik hunari haqida ko‘p yaxshi g‘azallar bitgan, uning nazokatini va zavqini tarannum etgan.

N. “M.N.”da: “Darvesh Dehakiy g‘ishtmollik san’atiga (ya’ni, g‘isht quyuvchilik – S.G‘.) mansubdir. Derlarkim, abdolvash (ya’ni, avliyotabiat, darveshsifat) kishidur”, – deb yozadi. N. ma’lumotiga ko‘ra, D.D. o‘z devonini doim beliga qistirib yurar ekan. Suhbat asnosida biror bayt yoki biror ma’noga ehtiyoj tug‘ilsa, darhol devonini ochib, topib ko‘rsatar ekan.

Ayrim manbalarda, D.D.ning savodi bo‘lmagani, she’rlarini yodida saqlagani va biron savodli odamni uchratsa, yozdirib olgani aytiladi.

“M.N.” tarjimoni Muhammad Qazviniy D.D. unga hamshahar bo‘lgani va shaxsan uning suhbatlariga erishgani, kasbi kulohlik (to‘quvchilik) bo‘lib, karbos degan matoni yaxshi to‘qigani haqida yozib, N. ma’lumotini to‘ldiradi. D.D. moldunyoga hirs qo‘ymagan, bog‘dorchilik qilib, ro‘zg‘or o‘tkazgan edi. Qazviniyning yozishicha, Sulton Ya’qubning oliy majlisida she’rxonlik qilgan va mamnun bo‘lgan Sultonning: “Istagan narsangni talab qil”, – degan taklifiga “Do‘stga do‘stdan bo‘lak yaxshi narsa yo‘q, menda mol-u shohga esa talab yo‘q”, degan. Sulton qistovga olganidan keyin, bog‘larini xirojdan ozod qilishini so‘raydi. Vosifiyning yozishicha, Sulton Ya’qub avval D.D. to‘g‘risida hech narsa bilmagan. Xurosondan Tabrizga borayotgan Binoiy yo‘lda D.D.ni ziyorat qilgan va Tabrizga borgach, u haqida Sultonga gapirib bergan. Shundan so‘ng Sulton Ya’qubda D.D.ni ko‘rish istagi paydo bo‘lgan. Qazviniy D.D.ning 2 ming yaxshi va benazir matla’lari borligini ta’kidlaydi. N. uning she’rlariga yuqori baho bergan va “faqirning to she’rg‘a shuurim bor ul tarafdin aning abyotidin yaxshiroq nazm kelmadi” deb yozgan va ikki baytini misol tariqasida keltirgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Болдырев Н. Диван Дарвеша Дехакий. – М., 1960; Ахмедов М. Дарвеши Дехаки. – Душанбе, 1967.*

S.G‘.

DARVESH MANSUR (1406/14–1456, Sabzavor) – shoir va olim. N. D.M.dan aruz va she’r ilmini o‘rgangan. N.ga ko‘ra, u Mavlono Yahyo Sebak shogirdidir. Aruz ilmida risola va Salmon Sovajiyning qasidayi masnu’siga javob bitgan.

Tasavvufda Hofiz Ali Komiy shogirdidir.

D.M.ning parokanda she’rlari bayon va tazkiralar tarkibida, jumladan, Faxriy Hirotiyning “Radoyif ul-ash’or” N.ning “M.N.”, Xondamirning “Habib us-siyar” asarlarida uchraydi.

Xondamir D.M. haqida: “Taqvodor va parhezkor, insofli va qiyinchilik bilan ro‘zg‘or tebratgan”, – deb yozadi. “Fazilatlari va kamoloti yodda saqlanib qolgan”, – deb ta’riflaydi.

N.ning yozishicha, pok xulqli soliklardan bo‘lib, Shayx Hasan Juriyning muridlaridan edi va ko‘p vaqtini ro‘za tutib o‘tkazardi. “Faqir aruzni Darvesh qoshida o‘qibmen, – deydi yana

ulug‘ shoir. – “M.N.”da. “N.M.”da bu fikrlarni davom ettirib yozadi: “Va zamon podshohi bu haqida kichik erkanda aruz-u sanoye’ o‘qumoqqa alarg‘a siporish qilib erdilar. Ammo bu toifaning (*tasavvuf ahlining – E.O.)* istilohotin ham xo‘b bilur erdilar. Mundin ham ko‘prak alardin eshitilur erdi. Bu toifada alardek xush tab’u daqiq oz kishi voqe’ bo‘lmish bo‘lgay”.

Olamdagi har zarrada Haq etdi zuhur,
G‘ofil ko‘ziga sira ko‘rinmaydi bu nur.

Har bir daraxt aytganda “Analloh” so‘zini,
Mansur-da “Analhaq” desa, bo‘lgaymi qusur?!

Hech bir zarra mavjud emas o‘z-o‘zicha,
Haq mohiyati emas hech elning so‘zicha.

Haq istamasa, biror-bir ish bo‘lgan emas,
Haq istadimi, rad etib bo‘lmas o‘zicha.

N. ta’kidlashicha, D.M. 40 b-n 50 yosh oralarida olamdan o‘tgan va qabri Xojayi Toqdadir.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988; Донишмандлар туҳфаси. – Т., 2009.*

S.G‘., E.O.

DARVESH MASHHADIY (t.y.n. va v.e.y.n, Mashhad – Hirot) – shoir. N. “M.N.” tazkirasida ma’lumot berishicha, “badzadmon” va tili yomon kishi bo‘lgan. Ba’zi obro‘-e’tiborli kishilarni yomon hajv qilgan. Tabiatida tubanlik va yaramaslik nihoyatda g‘olib bo‘lgan. “M.N.”-ni fors tiliga tarjima qilgan Faxriy Hirotiy N. ma’lumotlariga qo‘shimcha qilib, uning badfe’lligi va tili yomonligi ulug‘ shoir aytganidan ham yuz chandon ko‘pligi, lekin odamlar uning Allohdan o‘zining yaramas tabiati va tiyiqsiz nafsidan xalos qilishlikni so‘rab, yozgan darveshona bir bayti u-n afv etishlarini ta’kidlaydi. “Menga ham garchi ko‘p ahmoqliklar va nojo‘ya qiliqlar qilgan bo‘lsa-da, ammo hajvlarini oshkor etmadi”, – deydi N. hamda she’riyatning boshqa janrlarida bir nav tab’i bor deb, namuna sifatida bir matla’sini keltiradi:

On ki az abruyi u did mahi iyd asare,
Hast soleki az on moh nayomad xabare.

Tarj.: Kimki uning qoshidan bayram oyi asarini ko‘rgan bo‘lsa, yil o‘tsa-da, u oydan xabar topmadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

E.O.

DARVESH MAQSUD ANDIJONIY (XV) – bastakor va hofiz, Andijonda tug‘ilgan, Hirotda ijodiy kamolotga erishgan. Mavlono Ohiy Hiraviy shogirdidir. Bir necha yil Husayn Boyqaro xizmatida bo‘lib, Ustod Shodiy, G‘ulom Shodiy, Hofiz Ushshoqiy, Hofiz Mirak Buxoriy, Xoja Hamza Toshkandiy kabi mashhur san’atkorlar davrasida ijod qilgan. Shayboniyxon Hirotni zabt etgach (1507), D.M.A.ni boshqa san’atkorlar b-n birga Buxoroga olib ketgan. D.M.A. Jomiy va N. g‘azallariga “Tarona”, “Amal”, “Peshrav”, “Savt” kuylarini bastalagan. Yaxshi she’rlar ham yozgan. Hirotda vafot etgan.

Ad.: *Семенов А.А. Среднеазиатский трактат по музыке Дарвешали (XVII). – Т., 1946; Восифий. Бадоеъ ул-вақоеъ. – М., 1961.*

S.G‘.

DARVESH MUHAMMAD TARXON (vafoti – 1496) – davlat arbobi. O‘rda bo‘g‘a Tarxonning o‘g‘li. Sulton Ahmad Mirzoning tog‘asi va nufuzli amirlardan edi. Boburning ma’lumot berishicha: “Mirzo qoshida barcha beklardin ulug‘roq va mo‘tabarroq bu edi. Musulmon va odmi va darveshvash kishi edi. Hamisha mushaf kitobat qilur edi. Shatranjni bisyor o‘ynar edi,

yaxshi o‘ynar edi. Qush ilmini xo‘p bilur edi, qushni xo‘b solur edi. Oxir Boysunqur Mirzo bilan Sulton Ali Mirzoning g‘avg‘osida ulug‘luq zamonida badnomliq bila o‘ldi”.

Mirxondning “Ravzat us-safo” asarida yozilishicha, N. Samarqanddaligida Movarounnahr sohibixtiyorlari bo‘lgan D.M.T. va Ahmad Hojibeklar b-n ko‘p vaqt birga bo‘lar edi.

Ad.: *Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 2002; Ойбек. МАТ. 20 жилдлик. 13-жилд. (Адабий-танқидий мақолалар). – Т., 1979.*

E.O., M.I.

DARVESH MUHAMMAD TOQIY (XV asr o‘rtalari – XVI asr 1-yarmi) – xattot, shoir. Abdurahmon Jomiy va N. majlislarida ishtirok etib, ularning suhbatlaridan bahramand bo‘lgan. Arab xatining turli ko‘rinishlarini go‘zal va o‘qishli qilib yoza olgan. O‘tmish va zamondosh adiblarning ko‘plab asarlarini ko‘chirgan. M-n, Jomiyning “Bahoriston” (1503), Muhammad Avfiyning “Lubob ul-albob” (1477), Muhammad Tohir G‘azzoliyning “Ma’rifat ul-mazohir” (1502) va boshqa asarlar shular jumlasidandir.

D.M.T. xattotlik faoliyatining eng gullagan davri XV asr o‘rtalari – XVI asr boshlariga to‘g‘ri keladi. U o‘zi ko‘chirgan qo‘lyozmalarga “Darvesh Muhammad Toqiy” deb imzo chekkan. N. asarlarining u ko‘chirgan 4 qo‘lyozmasi fanga ma’lum. Ulardan biri N. kulliyoti, qolganlari terma devonlaridir. Uning Hirot xattotlik maktabidagi XV asr 90-yy.dagi eng katta xizmati N. b-n hamkorlikda ishlab, shoir kulliyotini kitobat qilganidir. Shoir va xattot bu ishga 1495-y.da kirishadilar. D.M.T. “X.” dostonlari, “X.M.” devonlar turkumi va boshqa asarlarini juzv-juzv holida ko‘chirib, kulliyot u-n tayyorlab boraveradi. Shu jarayonda “L.T.”, “M.L.”, “S.M.” kabi 1498-1500-yy.da yaratilgan yangi asarlari ham ko‘chirilib boradi. Ayni paytda, “M.N.” (1491) va “M.” (1493) qayta tahrirdan o‘tkazilib, to‘ldirishlar b-n kulliyotga kiritiladi. Kulliyotga kiritilishi lozim bo‘lgan barcha asarlar ko‘chirib bo‘lingach, ularning hammasi u-n umumiy so‘zboshi – “M.” asari yaratilib, kulliyot boshiga qo‘yiladi. Kulliyot 1500-y.ning yarmida ko‘chirib tugatiladi. Shu yil oxirida yaratilgan “M.Q.”ning unga kirmay qolgani buning yorqin dalilidir. Shu tariqa, N.ning 26 ta asarini o‘z ichiga olgan kulliyoti vujudga keladi. Kulliyot qo‘lyozmasi Turkiyaning Istanbul shahridagi To‘pqopu-Revan kutubxonasida 808-inv. raqami ostida saqlanadi. Qo‘lyozmada Xuroson ipak qog‘ozidan foydalanilgan. Matn mayda chiroyli nasta’liq xatida qora siyoh b-n yozilgan va har sahifada 4 ustun qilib, 27 yo‘ldan joylashtirilgan. Har bir asar boshlanishiga zarhal lavhalar ishlangan. Kulliyot 802 varaq (1604 sahifa)dan iborat. Uning o‘lchovi 23,5x32 sm. Bu kulliyotning mukammal fotonusxasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Qo‘lyozmalar instituti H.Sulaymon fondiga olingan.

D.M.T. N. asarlaridan tuzilgan 3 ta terma devonni ham ko‘chirgan. Har uchala devon Sharqshunoslik instituti xazinasida saqlanadi: 1. Inv. № 7701, 204 varaq. 2. Inv. № 3479, 201 varaq. 3. Inv. № 4007, 185 varaq. Ularning barchasi XV asr oxiri yoki XVI asr boshlarida Hirotda kitobat qilingan.

Ad.: *Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар.– Т., 1991; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1998.*

Muh.H., E.O.

DARVESH NOZUKIY (XV asr, Mashhad) – shoir. N.ning “M.N.” tazkirasida ma’lumot berishicha, otasi Mashhad hokimi bo‘lgan. O‘zi sipohiylik qilgan. Lekin keyin darveshlik yo‘liga kirgan, xirqa kiyib, uzlatga chekingan. Faqr tariqida tirikchilik qilishga yetarli mablag‘i bo‘lgan. Haqiqiy davlat sohibi o‘shadir, deydi N. va uning ta’rifida bir bayt keltiradi:

Birovkim chiqti eldin, ogah uldur,
Gadolig‘din kim ogahdir, shah uldur.

Bu N.ning “F.Sh.” dostonidagi:

Erursen shoh – agar ogohsen sen,
Agar ogohsen sen – shohsen sen, –

degan baytini esga soladi.

N. D.N.ning mana bu forsiy matla'si yaxshi chiqibdi deydi:

Manam, ki nest juz ba jomu boda tafoxur,
Bidor, soqiyi gulchehra, kosahoi purro pur.

Tarj.: Mening may b-n qadahdan bo'lak maqtangulik narsam yo'q, shunday ekan, ey gul yuzli soqiy, menga kosalarni to'ldirib-to'ldirib may uzat!

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011.*

E.O.

DARD – g'am, alam, iztirob, huzun. Haqdan yiroqlik g'ussasi; ilohiy ishq. Maxdumi A'zamga ko'ra, "Darddan murod ul fig'on-u alamdurkim, yor visolidan ajralishidan paydo bo'ladi… agar biror shaxs jami ilm-u amallarini egallagan bo'lsa-yu, lekin shu ilm-u amallarning natajasi bo'lgan ibodat tufayli dard – alam va mehnat chekmasa, uni ilm-u amal sohibi deb bo'lmaydi". Shu sababdan mumtoz she'riyatda dard, qayg'u, g'ussa iymon va vijdon timsoliga aylantirilgan.

N.da "dard ahli" b-n "ishq ahli", "haqiqat ahli" o'rtasida zarra qadar ham ziddiyat va farqlanish yo'q. Chunki D. – ishqqa, ishq – Haqqa chorlaydi. N. she'rlaridagi so'z, fikr, ayniqsa, ohanglar D., qayg'u va hasrat b-n yo'g'rilgandir. Buning isbotini shoirning aytarli har bir she'rida ko'rish va his qilish mumkin. Shuning u-n D. masalasida dalil va isbotga hech hojat sezilmaydi. Shu ma'noda quyidagi baytlarga diqqatni qaratish mumkin:

Dardlar ko'nglumga yuzlansun, balolar jonima,
Gar ikkisin istamas bo'lsam fido jononima.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011.*

I.H.

"DASTUR UL-VUZARO" – Xondamirning 1500–1501-yy.da N. iltimosiga ko'ra yozib, Husayn Boyqaro va uning vaziri Kamoliddin Mahmudga bag'ishlagan asari. U Islom paydo bo'lgan zamondan boshlab 1509–1510-yy.gacha kechgan davrda yashab faoliyat ko'rsatgan mashhur vazirlarning hayoti to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Unda Sharq xalqlarining VII–XVI asrlardagi tarixi ham muayyan darajada yoritilgan. 1509–1510-yy.da muallif asarni qayta ko'rib chiqib takomillashtirgan. Bir necha qo'lyozma nusxalari Osiyo va Yevropa mamlakatlari kutubxonalarida saqlanadi. Asar Said Nafisiy tomonidan 1938-y.da – Tehronda nashr etilgan.

Ad.: *Ғиёсиддин Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Т., 2015.*

E.O.

DASHTI QIPCHOQ – Janubiy Rossiya va hozirgi Qozog'iston yerlarini o'z ichiga olgan ulkan hududning o'rta asrlardagi nomi. Asosiy aholisini qipchoqlar tashkil etgani u-n shunday nom b-n atalgan. Mo'g'ullarning harbiy yurishlari natijasida bu yerda XII asrda Jo'chi ulusi deb ataluvchi davlat tashkil topgan. XIV asrning ikkinchi yarmidan boshlab manbalarda bu davlatga nisbatan ko'proq O'zbek ulusi degan nom qo'llana boshlagan va Sirdaryo bo'ylaridan Idil (Volga) bo'ylari va Uralgacha, Qrim va Astraxandan Sibirgacha bo'lgan bepoyon hududlarda yashagan aholining katta qismi ham turli etnik guruhlarga mansubligidan qat'i nazar o'zbek deb atalgan va bunda, eng avvalo, hukmron qatlam – xon va beklar o'zbek deb e'tirof etilgan va ular o'zlari ham o'zlarini o'zbek deb anglaganlar. "Zafarnoma", "Matla' as-sa'dayn majma' al-bahrayn", "Zubdat ut-tavorix" kabi tarixiy manbalarda ham ushbu hudud o'zbeklar mamlakati deb zikr etilgan.

D.Q. atamasi N. asarlarida ham qo'llangan. "S.I." dostonining Husayn Boyqaro madhiga

bag‘ishlangan 9-bobida N. shohning qilichini chaqmoqqa qiyoslab shunday misralarni bitadi:

Balo abridin tushgach ul ildirim,
Ko‘rub Dashti Qifchoqdin to Qirim.

Bu nom dostonning 17-bobida Doro va Iskandar qo‘shinining jangi tasvirida ham uchraydi. N. Doro qo‘shini safida jang qilgan turli ellarni sanab o‘tar ekan, D.Q. elini ham tilga oladi:

Bu kofurgun saf aro razm eli,
Kelib Dashti Qifchoq-u Xorazm eli.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; ЎзМЭ. 3-жилд. – Т., 2002; Абдураззоқ Самарқандий. Матлаъ ас-саъдайн мажмаъ ал-баҳрайн. 2-жилд. – Т., 2008.*

Q.E.

DAHONALAR – davlatlar o‘rtasidagi chegaralardagi o‘tish joylari. Ular harbiy-strategik jihatdan muhim hisoblangan va qattiq nazorat qilingan. D.da har doim muayyan miqdordagi qo‘shin turgan. Odatda bir-biri b-n dushmanlik munosabatida bo‘lgan davlatlar D.ni egallab olishga harakat qilganlar.

N.ning davlat arbobi sifatidagi faoliyati juda keng qamrovli edi. Manbalarda uning davlat xavfsizligini ta’minlash masalalari b-n ham shug‘ullanganligini ko‘rsatuvchi ma’lumotlar bor. Chegaralarning qo‘riqlanishi, shu jumladan, D.ni mustahkamlashga N. alohida e’tibor qaratgan. Uning Astrobodda hokim bo‘lib turgan shahzoda Sulton Badiuzzamonga yozgan maktubidan mazkur masalaga oid tavsiyalari o‘rin olgan. Unda bu xususda shunday fikrlar bayon qilinadi: “Yana ulkim, ul viloyatlarning bir kulliy ishi dahonalarning zabtidur. Bu mahaldakim, ko‘ngul tilamasdek amre voqe’ emas, dahonalarda andoq mazbut kishilar qo‘yub, andoq mustahkam va mazbut qililsakim, nauzu billohkim, agar amre hodis bo‘lsaki, mujibi taraddudi xotir bo‘lsa, dahonalar tarafidin xotir bakulliy jam’ bo‘lsa”. Ya’ni u viloyatlardagi eng muhim ishlardan biri D.ni mustahkamlashdir. Bu vaqtda, ya’ni ko‘ngil tilamaydigan ish yuz bermay turgan paytda, D.ga ishonchli kishilarni qo‘yib, shunday mustahkamlash, mahkam qilib qo‘yish kerakki, Xudo ko‘rsatmasin, agar xavotir olishga sabab bo‘ladigan ish yuz bersa, D. tarafidan xotir butunlay jam bo‘lsa.

Yuqoridagi so‘zlar shoirning aqlli, uzoqni ko‘radigan, hushyor davlat arbobi sifatidagi qiyofasini namoyish etadi. Ayni paytda bu o‘rinda N.ning uzoq yillik siyosiy-harbiy tajribasi ham o‘zini ko‘rsatadi. Ma’lumki, Sulton Husayn Boyqaroning siyosiy raqibi Yodgor Muhammad mirzoning hokimiyat u-n olib borgan kurashidagi yirik g‘alabalaridan biri Astrobod D.sining egallanishi b-n bog‘liq bo‘lgan edi. Bu haqida manbalarda shunday ma’lumot beriladi: “Dastlab Jojirm nusratnishon xoqonning hashamatidan Eram gulistoni kabi toza ... edi, shu payt... zafarasarlik askargohda mirzo Yodgor Muhammad Astrobod dahanasida turgan amir Shayx Hasan Temurning rishtasini uzgan, amir Hasanning o‘zi esa Shammoson qal’asi tomon qochgan va bir necha kundan keyin qal’adan chiqib, niyozmandlik qo‘lini shahzoda Yodgor Muhammad davlati etagiga urgan, unga tamoman tobe’lik bildirgan, degan xabar tarqaldi”. Astrobod D.sining mirzo Yodgor Muhammad tomonidan zabt etilgani ma’lum bo‘lgandan so‘ng Sulton Husaynning lashkarboshilari qochib, Yodgor mirzo tomoniga o‘tib keta boshlaganlar va Sulton Husaynda qarshilik ko‘rsatish u-n kuch qolmagan hamda chekinishga majbur bo‘lgan. Yodgor mirzo uning orqasidan kelib, Mashhadni, so‘ngra poytaxt Hirotni ham qo‘lga kiritgan. Binobarin, N.ning D.ni mustahkamlash, ularga ishonchli odamlarni qo‘yib, hushyorlik b-n qo‘riqlash haqidagi tavsiyalari, ta’kidlari bejiz bo‘lmagan. Bunda uning davlat arbobi sifatida bo‘lib o‘tgan voqealardan saboq olgani va to‘g‘ri xulosa chiqargani namoyon bo‘ladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Муншаот. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Эргашев Қ. Некоторые аспекты государственной*

деятельности Алишера Навои. – T., 2009; Навоий замондошлари хотирасида. – T., 1985.

Q.E.

DAHR ZOLI – N. she'riyatida ko'p uchraydigan timsollardan biri bo'lib, ko'hna va makkor dunyo timsoli bo'lgan qari kampir ramzi bo'lib keladi. Ma'lumki, dunyoni qoralash, tanqid qilish – mumtoz adabiyotda asosiy o'rin tutadi. Bu diniy-tasavvufiy qarashlar b-n bog'liq. Unga ko'ra, dunyoga ortiqcha mehr qo'yish insonni Haq yo'ldan ozdiradi, Parvardigoridan begonalashib, tubanlashuviga sabab bo'ladi. Shuning u-n ham so'fiyona adabiyotda dunyo ko'pincha noz-u ishva b-n oshiqlarini yo'ldan uradigan, lekin hech kimga vafo qilmaydigan xiyonatkor ma'shuqaga o'xshatiladi; paranji-chachvon ichida go'yoki sarvqad va go'zal ko'rinadigan, aslida esa qaddi bukchaygan, tishlari to'kilgan qari kampirga qiyoslanadi; talabgorlarini sehr-u jodu b-n tuzoqqa tushirib, o'z yo'rig'iga yurgizadigan, xohlagan ko'yiga soladigan jodugar, alvasti, zol, ajuza qiyofalarida tasvirlanadi. Barcha yomonlik, yolg'on, riyo timsoli bo'lgani u-n ham shoir bir g'azalida dunyoni islomdagi har to'rttala mazhab b-n uch taloq qo'yganini aytgan edi:

Dahr zolin to'rt mazhab birla qildim uch taloq,
Fard qildi bori mundoq kadxudoliqdin meni.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – T., 2011; Ibrohimova M. O'zbek mumtoz adabiyotida dunyo obrazi va badiiy talqini (qadimgi davrdan XV asrning I yarmigacha): Filol.fan.b.fals.dok... diss. – T. 2023.*

E.O., M.I.

DEBOCHA (f. – muqaddima, so'z boshi). D. kulliyot, devon, doston, tazkira, bayoz, shuningdek, nasriy asarlarga yoziladi. O'zbek adabiyotida o'z devoniga birinchi bo'lib mukammal D. yozgan shoir N.dir. Munis, Ogahiy, Nodira, Faqiriy va boshqalar ham o'z devonlariga D. yozganlar. D. shoir devonining qachon va qanday sharoitda, qaysi g'oyaviy-badiy tamoyillar asosida tuzilgani, shoirning ijodi va biografiyasi haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Bizga N.ning ikki D.si ma'lum.

I. "B.B." D.si. XV asrning 70-yy.i o'rtalarida N. o'zining birinchi devoni – "B.B."ni tuzgan bo'lib, unga mazkur devonning yaratilish tarixini keng bayon qiluvchi D. ham yozgan N. Alloh va payg'ambar madhlaridan so'ng asosiy muddaoga ko'char ekan, bu D.da o'zini kitobxonga shunday deb tanishtiradi: "Bu parishon ajzoning varaqnigori va bu oshufta avroqning qissa guzori, mehnat paymonasining jur'achashi, malomat xumxonasining sabukashi, shaydoliq mahallasining rasvosi va rasvoliq ko'chasining shaydosi:

Vafo bo'stonining dostonsaroyi,
Malomat bulbuli, ya'ni Navoiy..."

Mazkur D.da xabar berilishicha, N. bu davrda shoir sifatida keng shuhrat tutgan, ko'ngliga kelgan har qanday fikrni hech qiynalmay, nazm ipiga olar, xalq esa uning she'riyati durdonalariga jonini fido qilar edi:

Ko'nglumda ne ma'ni o'lsa erdi paydo,
Til aylar edi nazm libosida ado.
Ul nazmg'a jonini qilibon xalq fido,
Solurlar edi gunbazi gardung'a sado.

Lekin she'riy ijodda shunday katta salohiyatga ega bo'lgan shoir, o'z she'rlaridan devon tuzishga shoshmas, bunga hali erta deb hisoblar, uning muxlislari esa "ko'p qatla bu ish irtikobig'a iltimos va taklif qilur erdilar..." D.da N. hikoya qilishicha, kunlarning birida podshoh Husayn Boyqaro shoirga murojaat etib, darhol devon tuzishga kirishishni buyuradi va hech qanday uzr qabul etilmasligini ta'kidlaydi:

...Tilarbiz bu parishon bo'lsa majmu'.
Ravon bo'lkim, emastur uzr masmu'.

Odatda dil amri b-n ish tutadigan shoir xalqiga bunday "buyruq" ("amr") malol kelishi,

kulgili tuyilishi tabiiy. Bu ahvolni izohlab, N. "B.B." D.sida quyidagilarni yozadi: "Bu vojibulitbo' amr vuqu'idin va bu yasihhus-sukut hukm suduridin dud boshimg'a oshti va o't dumog'ima tutoshti, xomam tili lol va tilim xomasi shikastamaqol bo'ldi. Ne shuru' qilurg'a quvvat va ne uzr ayturg'a qudrat, g'oyat iztirob, balki iztirordin voqiamg'a sodiq va o'z holimg'a muvofiq tilim bu baytqa mutakallim va ko'nglum bu navog'a mutarannim erdikim:

Navoiy g'amg'a qoldi o'z kalomi jonfizosidin,
Aningdekkim, yetar bulbulg'a mehnat
o'z navosidin".

N. o'z devonini boshqalardan farqli o'laroq mukammal qilib tuzishga qaror beradi. M-n, boshqa shoirlar o'z devonlarida odatda qofiyasi bo'yicha arab alifbosining 28 harfiga g'azal bitgan bo'lsalar, N. 32 harfning hammasiga g'azal bitadi. Boshqa shoirlar devonlari ishqiy she'rlardan iborat bo'lsa, N. nasihatomuz ("nasihatoro va mav'izatoso") she'rlaridan ham namunalar beradi.

D.da N. g'azallarining xarakteriga to'xtalib, baytlarning mazmunan bir-biriga bog'langan bo'lishini istaganini ("mazmunda matla'e voqe' bo'lsa, aksar andoq bo'lg'aykim, maqta'g'acha surat haysiyatidin muvofiq va ma'ni jonibidin mutobiq tushgay") aytadi. Shu b-n birga shoir devonida o'sha davr adabiy hayotida iste'molda bo'lgan barcha she'r turlaridan namunalar yaratishga intilgan va shunga amal qilgan.

Mazkur D.da N. o'z tarjimayi holiga oid qimmatli ma'lumotlarni berish b-n birga, o'z fikrlarini ko'p o'rinda saj' b-n, qator hollarda she'rning masnaviy, ruboiy, fard shakllarida ifodalagan. D.da birgina ruboiydan 15 namuna borligi, mazkur D.ning boy badiiy qimmatga egaligini ko'rsatadi.

P. "X.M." D.si. "X.M."devonining D.sida xabar qilinishicha, N. "N.N."ga ham maxsus D. yozgan ("...dog'i ikkinchi devonimdakim, "N.N."g'a mashhurdur, rabt va tartib berib, debochasida sharh bilan aazzi as'hob va ajillayi ahbob xizmatlarida arz qilib erdim..."). Ammo bu D.ning matni bizgacha yetib kelmagan.

N. tomonidan "X.M." devoniga yozilgan D. adabiyotshunoslikka oid shu janrning eng mukammal namunasidir. Bunda N. o'z ijodiy biografiyasining bir qancha muhim masalalarini yoritib bergan. N. xabar qilishicha, "B.B." va "N.N." devonlarini tuzgandan keyin ham ko'p she'rlar yozgan. Hayotda esa buning qator jiddiy sabablari bo'lgan. Ulug' shoir bu to'g'rida majoziy iboralar b-n quyidagilarni ma'lum qiladi: "Ishqim oshubi, tug'yonida har suubatkim yuzlanur erdi, chun bir hamdard rafiqim yo'q erdikim, dardimdin shammayi izhor qilg'aymen, biror bayt birla ul hol mazmunin nazm qilib, ko'nglumni xoli qilur erdim va jununum shiddati g'alayonida har oshubkim, ollimg'a kelur erdi, chun bir hamzabon mushfiqim yo'q erdiki, maxfiy o'tumni oshkor etaymen, biror matla' bila ul ma'nini ado qilib, qattig' holimni sharh etar erdim... Bu vosita bila oz vaqtda ko'p she'r aytildi va har nav'nazm tegramga yig'ildi".

N. shu xil muhim izohlar b-n turli davrlarda yozilgan, hajman buyuk she'riy merosini to'rt devondan iborat yig'ma devon – "X.M."ga qanday joylashtirganini, bu to'rt devonga nima u-n "G'.S.", "N.Sh.", "B.V.", "F.K." deb nom qo'yganini izohlashga kirishadi. D.dagi bu ma'lumotlarsiz shoir devonining tuzilish tarixini, ko'p she'rlarining yozilish davrini bilish qiyin bo'lar edi. D.da N. o'zining qarigan chog'da turli xastaliklar tufayli qanday og'ir holatga tushgani to'g'risida quyidagilarni yozadi. Bu ma'lumotlarni boshqa manbalardan topish mushkul: "... bu bandag'a yosh ulg'ayg'on chog'da za'fe yuzlandi. Va ul za'f rishtasi rishtadek za'fliq paykarimg'a andoq chirmondiki, ul quyoshdek zamirg'a ravshandur. Holo mizojim istiqomatdin munharif va badanimda necha maraz muxtalifdur.

Kishi qo'ldamayin yeridin qo'parida ko'p ozor bo'lg'ay va aso madadi bo'lmag'uncha yerdin ko'tarmog'i dushvor..."

D.lardagi bu singari ma'lumotlar N. biografiyasini to'ldirishda, ko'p aniqliklar kiritishi tabiiy. N. D.lari katta ilmiy-tarixiy ahamiyatga ega

bo‘lishi b-n bir qatorda yuksak badiiy qimmatga ega. Chunki ular shoirona did va zavq b-n yozilgan, keyingi devon tuzgan o‘zbek shoirlari o‘z D.larida N. an’analarini davom ettirdilar.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Сулаймонов Ҳ. Хазойин ул-маоний, текстларини ўрганиш ва нашрга тайёрлашнинг асосий масалалари. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. 1-жилд., Зоҳидов В., Дебочанинг сири. Қаранг: В.Зоҳидов. Ҳаётбахш бадиият тароналари, – Т., 1975; Яна бир дебочанинг шаҳодати Қаранг: Зоҳидов В. Жаҳон бадиияти зарварақлари. – Т., 1980; Каримова Фарида. Ўзбек адабиётида дебоча. Ўзбек тили ва адабиёти жилдлик. 1986, 6-сон.*

Ab.H., F.K., M.A.

DEVONA XUSOMIY (1442, Xiva − 1505, Qorako‘l) − forsigo‘y shoir. Bir necha muddat Samarqandda Xoja Ahror Valiy mulozamatida bo‘lgan. Hirotga kelib, Jomiy nazariga tushadi. Jomiy, hatto uni yo‘qlab turgan. N. uni “M.N.”da qayd etib, quyidagi matla’sini keltirib o‘tadi:

Fig‘on, ey do‘ston, k-on la’li shirin
az havas moro
Bikushtu hech kas bar sar nayomad
juz magas moro.

Tarj.: Ey do‘stlar, fig‘onkim, ul shirin lab yor havas yuzasidan bizni o‘ldirdi-yu, pashshadan bo‘lak hech kim (xabar olish uchun) boshimizga kelmadi.

Xorazm safari oldidan Shayboniyxon ham uning Qorako‘ldagi xonaqohini ziyorat qilgan.

D.X. b-n suhbatda bo‘lgan Hasanxoja Nisoriy uning ijodiga yuqori baho beradi: “She’rlari qiyomiga yetgan nafas va so‘zlari yoqimli, go‘zal”. Shoirning o‘zi ham iste’dodi b-n faxrlanib, bir g‘azalida men so‘z mulkining podshohi bo‘libman, qo‘shinim so‘z asosida tartib berilgan deydi:

Chun Husomiy shudaam podshahi mulki suxan,
Ba asosi suxan orasta shud lashkari mo.

D.X. faqat hajviy yoki ijtimoiy mavzudagi she’rlar yozibgina qolmay, lirik she’rlardan iborat devoni ham bo‘lgan. 1855-y. Muniriddin Abulsharaf Buxoriy tomonidan tuzilgan bayozda uning 222 ta g‘azali keltirilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ҳасанхожа Нисорий. Музаккири аҳбоб. – Т., 1993; 310 (Тарж. изоҳи); Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988.*

E.O.

“DEVONI FONIY” Ma’lumki, N. nafaqat o‘zbek, balki fors-tojik tilida ham samarali ijod qilgan zabardast zullisonayn shoir hisoblanadi. U “X.M.” devonlar turkumini tuzib bo‘lgach, 1495–1500-yy.da forsiy tildagi ijod namunalarini ham to‘plab, “Devoni Foniy” (“Foniy devoni”)ni tartib berdi. Shoirning yigirma jildlik Mukammal asarlar to‘plamiga asoslanadigan bo‘lsak, bu devon ancha salmoqli bo‘lib, 552 g‘azal, 1 musaddas, 1 marsiya-tarkibband, 64 qit’a, 72 ruboiy, 16 ta’rix, 9 lug‘z (chiston), 266 muammodan iborat. G‘azallarning aksariyati mashhur fors-tojik shoirlarining she’rlariga tatabbu’lardan iborat. Jumladan, Hofiz Sheroziyning 237, Abdurahmon Jomiyning 52, Amir Xusrav Dehlaviyning 33, Sa’diy Sheroziyning 25 va boshqa shoirlarning ko‘plab g‘azallariga tatabbu’lar qilingan. O‘zining forsiyda bitgan original g‘azallariga “Muxtara” va “Ixtiro” deb sarlavha qo‘yilgan bo‘lib, ularning soni 50 dan ortiq. Bundan tashqari, u forsiyda yana 2 ta qasidalar to‘plami ham tuzgan. Ulardan biri “Sittayi zaruriya” (“Olti zarurat”) deb nomlanib, 6 qasidani o‘z ichiga oladi. “Fusuli arbaa” (“To‘rt fasl”) qasidalar turkumi esa yil fasllariga bag‘ishlangan 4 qasidadan iborat. “S.Z.” qasidalari S.Erkinov, S.Rafiddinov va H. Muxtorov kabi olimlar tomonidan nasriy tarjima qilingan bo‘lsa, “F.A.” qasidasi A.Habibullayev tomonidan nasriy o‘zbekchalashtirilgan.

N.ning forsiy merosi Abdurahmon Jomiy, Abdulloh Hotifiy, Kamoliddin Binoiy, Davlatshoh Samarqandiy, G‘iyosiddin Xondamir kabi mashhur zamondoshlari tomonidan yuksak baholangan. Shoirning o‘zi “ko‘p turluk dilkash adolar va dilpazir ma’nolar voqe’ligi” jihatidan forsiy asarlari ham xalq orasida mashhur bo‘lib, zamondoshlar ularni sevib o‘qishlarini aytadi.

“D.F.” 1983–2004-yy.da MAT tarkibida hamda 2011-y. 10 jildlik TAT majmuasida nashr bo‘ldi. Shuningdek, to‘liq bo‘lmasa-da Eronda, ayniqsa Ali Muhammad Xurosoniy tomonidan Dushanbeda “Devoni Foniy” nomli asar nashr bo‘ldi.

Shunga qaramay, haligacha biz bu muazzam merosning to‘la she’riy tarjimasiga ega emasmiz. Turli yillarda G‘.G‘ulom, Sh.Shomuhamedov, Habibiy, Chustiy, A.Hayitmetov, J.Kamol, N.Muhammad, H.S.G‘ani, O.Bo‘riyev, E.Ochilov, A. Parda kabi tarjimonlar Foniy g‘azal, qasida, qit’a, ruboiylaridan namunalar tarjima qilganlar. J.Kamol “Sittayi zaruriya” va “Fusuli arbaa”dan o‘rin olgan jami 10 ta qasidani o‘zbekchaga o‘girdi.

“D.F.”ning hozirda fanda Parijdagi 285, 1345, Tehrondagi 15002, Turkiyadagi 3850, 1952 raqamli qo‘lyozmalari mavjud.

“D.F.”ning she’riy tarjimasiga birinchi bo‘lib G‘afur G‘ulom qo‘l uradi. Shoir tavalludining 525 yilligi oldidan u “Bir qadah may izlabon ketdim bugun mayxonaga” va “Yaxshi bo‘lg‘ay olam ahlin qilmasang hech yodlarin” misralari boshlanadigan ikki g‘azalini o‘zbekchalashtirib, e’lon qiladi. Chunonchi, ikkinchi g‘azal ramali musammani maqsur (foilotun foilotun foilotun foilun – –V – – – V – – – V – – – V –)da yozilgan bo‘lib, tarjimon uni ayni vaznning o‘zi bilan tarjima qilish orqali asliyatga ham shaklan, ham mazmunan muvofiq tarjima yaratgan:

Harchi hastand ahli olam behki n-ore yodashon,
To ba xotir n-oyadat az yodashon bedodashon.
Yaxshi bo‘lg‘ay olam ahlin qilmasang
hech yodlarin,
Olmasang hech xotiringga yodlarin –
bedodlarin.

Lekin birinchi g‘azal hazaji musammani axrabi solim vaznida bo‘lib, mutarjim uni ham ramali musammani maqsurda tarjima qilgan.

Fors-tojik adabiyotining bilimdoni va zabardast tadqiqotchisi, mohir va sermahsul tarjimon Sh.Shomuhamedov Foniyning “Tuhfat ul-afkor” qasidasi (qisqartirishlar bilan) hamda 9 qit’a va 10 ruboiysini barmoq vaznida tarjima qilgan.

She’riy tarjimaning dastlabki sharti asliyatga muvofiq vazn tanlashdan iborat. Vazn noto‘g‘ri tanlansa, ma’no har qancha to‘g‘ri berilmasin, bunday tarjima muvaffaqiyatli hisoblanmaydi. Chunki shakl o‘zgarishi b-n she’rning ritmi, ohangi ham o‘zgaradi, bir estetik voqelik boshqa estetik voqelikka aylanadi, shunga muvofiq, uning o‘quvchiga o‘tkazadigan ta’sir kuchi ham o‘zgacha bo‘ladi. Chunonchi, quyidagi qit’a ramali musammani maqsur vaznida yaratilgan bo‘lib, Sh.Shomuhamedov uni 9 hijoli barmoq vaznida tarjima qilgan – 15 hijoli misralar o‘zbek tiliga 9 bo‘g‘inli bo‘lib ko‘chgan. Natijada, asliyat mazmuni to‘g‘ri aks etgan bo‘lsa-da, Navoiy qit’asiga xos ohang va joziba yo‘qolgan, shoir uslubi o‘zgarishga uchragan, fikrlarning zalvorli oqimi ixcham misralarda tezlashib ketgan, shunga muvofiq, shikoyat ohangi hukmga aylangan:

Z-oshnoyon on qadar ranj-u alam didam, ki nest
Mayli on aknun, ki bo xud niz bosham oshno.
Dil xaroshu jon ano binad az eshon go‘iyo,
Hast yak nisf az xaroshi dil, digar nisf az ano.

Tarj.: Do‘stlardan shu qadar (ko‘p) ranj-u alam ko‘rdimki, endi hatto o‘z-o‘zim bilan do‘st bo‘lishdan ham yuragim bezillab qoldi. Ulardan ko‘nglimga ozor-u jonimga azob etadi – go‘yoki ularning bir qismi dilga ozor beruvchi-yu, bir qismi jonni azobga qo‘yuvchi.

Habibullo Said G‘ani “D.F.”dagi 25 ta g‘azalni o‘z vazni, hatto ichki qofiyalanish tartibini saqlagan holda tarjima qilib, asliyat bilan birga alohida kitobcha shaklida e’lon qildi. Bu ulug‘ shoirning forsiy merosini tarjima qilib, o‘quvchilarga yetkazish yo‘lidagi jiddiy qadamlardan biri ekanligi shubhasiz. Albatta, tarjimon tarji-

mada shakl va mazmun mutanosibligini saqlash borasida bir qadar muvaffaqiyatga ham erishgan. Chunonchi, quyidagi muxtara' g'azal sariyi musaddasi matviyi maqsur (muftailun muftailun foilun – – VV – – VV – – V –) vaznida yozilgan bo'lib, tarjimon uni ayni vaznning o'zi orqali tarjima qilish b-n shakl va mazmun mutanosibligini tarjimada ham saqlay olgan:

Mo ba kujo, zuhd-u ibodat kujo?
Mast kujo, taqvi-yu toat kujo? (18-28)

Qayda biz-u zuhd-u ibodat qani?
Mast qani, taqvi-yu toat qani?

"D.F." tarjimasi yo'lidagi eng jiddiy qadamni O'zbekiston Xalq shoiri, zabardast tarjimon Jamol Kamol qo'ydi – u N.ning forsiy merosidan 200 g'azal va 10 qasidani an'anaviy vaznida – aruziy jilosi b-n tarjima qilib, alohida kitob holida nashr ettirdi. Uning Sharq mumtoz so'z adabiyotini yaxshi bilishi, forsiy adabiyot tarjimasida katta tajriba to'plab, yuksak mahorat hosil qilgani, eng muhimi, tiynatida sharqona ruh mavjudligi, o'zi ham aruzda hassos g'azallar, purma'no ruboiylar va oshiqona muxammaslar yozib, qalami qayralgani Foniy g'azallari va qasidalari tarjimasi muvaffaqiyatini ta'minlangan omillar sirasiga kiradi. Ba'zi juz'iy qusurlarini aytmaganda, bu tarjimalar, asosan, ham shakl, ham mazmun jihatidan asliyatga muvofiq chiqqan, eng muhimi, N. g'azallariga xos mazmuniy teranlik va shakliy joziba, hassos tuyg'ular mavji-yu otashin kechinmalar to'lqini o'zbekchada ham asliyatga munosib ravishda o'z aksini topgan. Chunonchi:

Olame xoham, ki nabvad mardumi olam dar o',
K-az jafoyi mardumi olam naboshad
g'am dar o', –

bayti b-n boshlanadigan ramali musammani maqsur vaznidagi muxtara' Foniyning eng go'zal va mashhur g'azallaridan bo'lib, uni Jamol Kamol o'z vazni bilan maromida tarjima qilgan va tarjimada shakl va mazmun birligining yorqin namunasini yaratgan:

Olam istarmanki, unda ahli olam bo'lmasin,
Unda olam ahlining bedodidin g'am bo'lmasin.

"D.F." to'liq tarjima qilinmagan bo'lsa-da, bir necha g'azal, ruboiy, qit'a va qasidalarining ikki, hatto uch tarjima nusxasi paydo bo'lgan. Bu hol ularni o'zaro qiyoslab o'rganish va asliyatga nisbatan yaqin tarjimani aniqlab olish imkoniyatini yaratadi. Masalan, Sh.Shomuhamedov shoir ruboiylaridan namunalar tarjima qilgan edi. Keyinchalik E.Ochilov va A.Pardalar mavjud 72 ruboiyning barchasini o'zbekchalashtirdilar. Xuddi shunday N.ning Amir Xusrav Dehlaviyning Sharqda mashhur "Daryoyi abror" qasidasiga javoban ustozi Abdurahmon Jomiyga bag'ishlab yozgan 99 baytlik "Tafakkur tuhfasi" qasidasining ham uch tarjimasiga egamiz.

Ad.: *Инжулар уммони. Т., 1988; Алишер Навоий. "Девони Фоний"дан. Т., 2006; Алишер Навоий. Фоний гулшани. Т., 2011; Очилов Э. "Девони Фоний"нинг ўзбекча таржималари \\ "Ўзбек тили ва адабиёти", 2011, № 1; Сирожиддинов Ш., Юсупова Д., Давлатов О. Навоийшунослик. – Т., 2018; Алишер Навоий: Қомусий луғат. 1–2-жилдлар. – Т., 2016.*

S.R., E.O.

DEVONIY (MUHAMMAD KOMIL ISMOIL DEVON O'G'LI) (1887–1938) – xivalik xattot, musiqashunos, naqqosh va shoir. D. amakisi Xudoybergan Muhrkan (1822-1920) qo'lida tarbiya topgan, madrasada Muhammad Yusuf Doiy (1831-1909) oldida tahsil olgan. D. xushxat va xushxon bo'lgani bois 15 yoshlarida saroyga ishga taklif qilinadi.

D. shoir sifatida devon tuzgan, g'azallari turli bayoz va majmualarga kiritilgan. She'riy devonlari qo'lyozmalari va o'zi kitobat qilgan husnixat namunalari Sharq qo'lyozmalari markazida saqlanadi.

D. N. va boshqa shoir g'azal, muxammas va ruboiylardan tashkil topgan bayoz-qo'lyozmani Movarounnahr nasta'liq xat, fabrika qog'ozida (1324/1906-07) Xiva xoni Muhammad Rahimxon-II buyrug'i b-n ko'chirgan.

Ad.: *Бобожон Тарроҳ. Хоразм навозандалари / Нашрга тайёрловчи Давлатёр Раҳим. – Т., 1994; Лаффасий. Тазкираи шуаро / Нашрга тайёрловчи П.Бобожонов. – Урганч, 1992; Муродов А. Марказий Осиё хаттотлик санъати тарихидан. – Т., 1971; Матёқубов О., Болтаев Р., Аминов Ҳ. Ўзбек нотаси. – Т., 2009; ЎзМЭ. 3-жилд. – Т., 2002.*

Muh.A.

DEYCH Aleksandr Iosifovich – (1893., Kiyev – 1972., Moskva), rus yozuvchisi, adabiyotshunos, tarjimon. Kiyevdagi universitetni tugatgan, (1917), f.f. d-ri (1945), prof. (1922). D.A.I. bir qator ilmiy maqola, biografik qissalar va kitoblar muallifi.

Ikkinchi Jahon urushi yillari O‘zbekistonda yashab, Informbyuroning vakili sifatida faoliyat ko‘rsatgan. Shu b-n birga O‘rta Osiyo Davlat universitetida (hozirgi O‘zMU) dars bergan. O‘zbek adabiyotini qunt b-n o‘rganib, “O‘zbekistonning faxri”, “Bugungi va o‘tgan kun” to‘plamlarida o‘zbek adabiyoti va madaniyatini yuksak baholagan, shuningdek, Bobur, Hamza, Fozil Yo‘ldosh, M.Shayxzoda singari qator ko‘zga ko‘ringan namoyandalari haqida fikr yuritgan. O‘zbekistonda D.A.I. adib Oybek b-n do‘stlashadi va hamkorlikda bir qancha ilmiy ishlar yaratgan. D.A.I. Oybekka 1957-y.da Moskvadan turib yo‘llagan maktubida: “Azizim Oybek, mening qarshimda Navoiy xazinasini namoyon etganingiz va o‘zbek xalqining dahosini sevishga sabab bo‘lganingizni hech qachon unutmayman”, deb yozadi.

D.A.I. N. tavalludining 500 yilligini nishonlashga katta hissa qo‘shdi. U “Ulug‘ o‘zbek shoiri” (1948) to‘plamida Oybek b-n hamkorlikda “Alisher Navoiyning g‘oyaviy olami” maqolasini e’lon qildi. Unda N.ning “Xamsa”si misolida shoir dunyoqarashi tahlil etilib, “Xamsa”ga bir butun badiiy asar sifatida qaralgani tadqiqotning yutug‘ini ta’minlagan.

D.A.I.ning “Alisher Navoiy va uning davri” (“Новый мир”, 1948-y., №5, 232-250-betlar) maqolasi ham Oybek b-n birga yozilgan bo‘lib, temuriylar hukmronligi va bu davrda ilm-fan, adabiyot va san’atning rivoji masalalarini yoritishga bag‘ishlangan. 1948-y.da Moskvada nashr etilgan N.ning “Tanlangan asarlar”i D.A.I.ning umumiy tahririda yuzaga kelgan bo‘lib, so‘zboshi va izohlar ham D.A.I. (Oybek b-n) qalamiga mansubdir. Shu yil L.Penkovskiyning tarjimasida e’lon qilingan N.ning “F.Sh.” dostoni D.A.I.ning kirish maqolasi (“Haqiqatga aylangan xayol” – “Мечта ставщая действительносьтю”) b-n boshlanadi. Olim N. asarlarining rus tiliga qilingan tarjimalari haqida fikr yuritib, “O‘zbek she’riyatining bebaho xazinasi” (“Огонёк”, 1943, №50-51), “Navoiy asarlarining ruscha tarjimasi haqida” (“Правда Востока”, 1948-y. 24-aprel) kabi maqolalar yozgan.

D.A.I.ning Oybek b-n hamkorlikda yaratgan “Alisher Navoiy” (tanqidiy-biografik ocherk) asari (1968) olimning N. ijodi bo‘yicha amalga oshirgan barcha tadqiqotlarining umumlashmasidir. Rus tilida chop etilgan bu asar bir necha bobdan iborat bo‘lib, unda Hirotning N. davridagi shon-shuhrati, shoirning hayot yo‘li, N. va Husayn Boyqaro munosabatlarini aks ettiruvchi xalq afsonalari, shoir lirikasi, “Xamsa”, N.ning g‘oyaviy-adabiy qarashlari kabi masalalar yoritiladi, N.ning “Xamsa” yaratgan salaflari va zamondoshlari, umuman, shoir asarlaridagi zamon va makon, birlik va umumiylik, bilish nazariyasi kabi falsafiy mushohadalar talqin qilingan. Mazkur asar N. tavalludining 525 yilligiga munosib tuhfa bo‘lib, N. hayoti va ijodining rus hamda boshqa xalqlar orasida keng ommalashuviga sabab bo‘ldi.

Ad.: *Айбек., Ал. Дейч. Алишер Навои (критико-биографический очерк, 1968; Айбек., Дейч А. Мир идей Алишера Навои. Сб. “Великий узбекский поэт”, 1948; Саъдинов М. Оқибат. – “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”, 1988, 22 май.*

Sh.R.

DEHLAVIY XUSRAV (taxallusi; ismi – Yaminiddin, kuniyati – Abulhasan) (1253, Patyoli – 1325, Dehli) – mashhur forsiyzabon shoir, mutafakkir, olim, bastakor, Kesh (Shahrisabz)ning lochin urug‘idan bo‘lgan otasi Sayfuddin Mahmud mo‘g‘ullar xurujidan qochib, turkiy sulolalar hukmronlik qilayotgan Hindistonga boradi. Dehli sultoni Shamsuddin Eltutmish xizmatiga kirib, uning harbiy a’yonlaridan birining qiziga uylanadi. Yaminiddin Dehli yaqinidagi Patyoli qal’asida tug‘iladi. 8 yoshida otasi mo‘g‘ullarga qarshi jangda halok bo‘lib, o‘z davrining fozil kishilari qatoriga kirgan bobosi Imodulmulk qo‘lida tarbiyalanadi. Uning shaxs va shoir sifatida shakllanishida onasi Davlatnozbegimning ham xizmati katta. Xushxat bo‘lgani u-n xattot qilish maqsadida otasi uni dastlab Qozi Sa’duddin Muhammad ixtiyoriga bergan edi. Lekin bolaning she’r yozishga mayli kuchli ekanini ko‘rgan ustozi va bobosi uni shoir Xoja Aziziddin tarbiyasiga topshiradilar. Yoshligidan alohida qobiliyati b-n ajralib turgan Yaminiddin o‘sha zamonning asosiy fanlari bo‘yicha keng va chuqur bilib olib, turk, fors, arab va hind tillarini mukammal o‘zlashtiradi. Shoir, olim, bastakor sifatida tanilgan D.X. saroy xizmatiga jalb qilinadi. U o‘z hayoti davomida 9 ta hukmdorni ko‘rib, shulardan 7 tasi huzurida xizmat qilgan. Nosiriddin Bug‘roxon, Muiziddin Kayqubod, Jaloliddin Feruzshoh, Alouddin Xiljiy, Qutbiddin Muborakshoh, G‘iyosiddin Tug‘luq shular jumlasidandir. Xususan, Jamoliddin Feruzshoh davrida u yuqori mansabga ko‘tarilib, Amir unvoniga sazovor bo‘lgan. U Hasan Dehlaviy b-n birgalikda 5 yil Multonda – Muhammadqoon saroyida ham xizmat qiladi. Ular 1285-y.da Sultonning mo‘g‘ullarga qarshi urushida qatnashib, asir ham tushadilar, lekin qandaydir tasodif tufayli qutulib qolishadi. O‘zining ma’lumot berishicha, shoirning 5 o‘g‘il, 1 qizi bo‘lib, ular orasida Malik Ahmadgina fazl-u adabi b-n o‘z davrida e’tibor qozongan. D.X. umrining oxirida saroy xizmatini tark etib, chishtiya tariqatining mashhur shayxi Nizomiddin Avliyoga murid tushadi, tariqat bosqichlarini bosib o‘tib, valiyulloh maqomiga erishadi. Shohona Xusrav ismidan voz kechib, faqirona Muhammad Kosales nomini oladi. Davlatshohning yozishicha, “suluk davomida podsholar madhini she’rlar devonidan mahv etadi”. U Nizomiddin Avliyoning oyoq tomoniga dafn etilgan.

D.X. o‘zining turkiy nasabi b-n hamisha faxrlangan, she’rlarida bu haqda qayta-qayta g‘ururlanib yozgan, Hindiston ham uni Turkiston o‘lkasining bir fozil o‘g‘loni sifatida qabul qilgan. Pir-murshidi Shayx Nizomiddin Avliyo ham uni “Turkulloh” – “Alloh yaratgan turk” sifati b-n ulug‘laydi. Shayx aytar ekanki: “Qiyomat kuni har kishi bir nima bilan faxr etadi. Men esa ana shu turk – Xusrav ko‘ksining kuyugi bilan faxrlanaman!”

“S.I.” dostoni xotimasida N. ham uni “turki hindilaqab”, ya’ni asli turkiy qavmga mansub bo‘lishiga qaramay, hind shoiri sifatida mashhur bo‘lgan deb ta’rif beradi:

Yana Xusrav – ul turki hindi laqab –
Ki, so‘z birla oldi Ajamto Arab.

D.X. Nizomiy “Panj ganj”iga birinchi bo‘lib muvaffaqiyatli javob yozgan. N. uni asarlarida *Hind sohiri (sehrgari)* deb ta’riflaydi.

N. o‘z “X.”sini yaratishda Nizomiy b-n bir qatorda, D.X. dan ham kuchli ta’sirlangan, har bir dostoni muqaddimasida uni ustozlari qatorida ehtirom b-n tilga olib, ijodiga yuksak baho bergan. Chunonchi, “H.A.”da uni so‘z iqlimining shohi, deb ulug‘lasa, “F.Sh.”da Qaqnusga o‘xshatadi; “L.M.”da Hind sehrgari sifatini bersa, “S.S.”da uning “Xamsa”sini ma’nolar jahoni, deb ta’riflaydi. “S.I.”da esa tatabbu’navislik an’anasini boshlab bergan sohir so‘z san’atkori sifatida vasf etadi. Asar nihoyasida so‘z b-n Ajam-u Arabni olgan D.X. Jomiy b-n birga tushida “X.”ni yakunlagan N.ni qo‘lida tutib, Nizomiy oldiga olib boradilar:

Tutub Jomiy-u Xusrav iki qo‘lum,
Nizomiy sari boshladilar yo‘lum.

N. shoirni “N.M.” asarida avliyolar qatorida tilga oladi. Uning ishq-u muhabbat maslagidan bahravarligi va bag‘oyat vajd-u hollik ekani she’rlaridan bilinib turishini ta’kidlaydi. N. ta’biri b-n aytganda, u ustozi hamrohligida “tayyi arz tariqi bila” muborak haj ibodatini ado etib qaytgan. Tushida 5 marta Muhammad (s.a.v.)ni ko‘rgan. U, hatto Xizr (a.s.)ni ham tush ko‘rib, o‘z og‘ziga muborak og‘zining suvini solishini so‘raydi. Lekin Xizr (a.s.) bu davlat Sa’diyga muyassar bo‘lganini aytadi. Bundan Shayx Sa’diyning she’riyatdagi maqomi qanchalik yuksakligi anglashiladi. Amir Xusrav bu javobdan ma’lul bo‘lib, ko‘rganlarini ustoziga bayon qiladi. Shayx Nizomiddin Avliyo o‘z og‘zining suvini shoirning og‘ziga soladi va uning barakatidan Xusrav oliy ma’naviy darajalarga yetadi.

“M.Q.”da esa “ishq ahli guruhining pokbozi va pokravi” deb lutf etgan.

“Anga ishq-u muhabbat mashrabidin choshni tamom bor emish. Andoqki so‘zlaridin zohirdurki va bag‘oyat vajd-u holliq erkandur”, – deydi yana.

“Haqiqat ishqbozligini majoz shevasida bezagan, balki haqiqatning zebo keliniga ishqibozlik qilgan, go‘zal ash’ori b-n telba oshiqlar yarasiga tuz sepgan, xastalarning shikasta dillarini xusravona zamzamasi ila mayxush etgan (zotdir)”, – deb yozadi D.X. ham.

D.X. ijodining ilk bosqichida Sultoniy taxallusi b-n qalam tebratgan. Dehlida yashagani u-n keyin Dehlaviy taxallusini oladi. Bu sermahsul shoir Sharq adabiyotining, deyarli, barcha janrlarida o‘z kuchini sinab ko‘rib, forsiy she’riyatni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqdi. U nafaqat she’riy, balki nasriy asarlar ham yozgan. O‘zining aytishicha, merosi 400 ming baytdan ko‘p, 500 ming baytdan kamroq. U jami 99 ta asar ijod qilgan deyishadi. U forsiydan tashqari, urdu, hind va arab tillarida ham asarlar yozgan.

Sermahsul hayoti davomida yozgan ulkan she’riy merosini umr fasllariga moslab, 5 devon tartib bergan shoir Sharq adabiyotida devon tuzish an’anasini boshlab berdi. Keyinchalik Jomiy va N. o‘zlarining buyuk salaflari an’anasini davom ettirib, devonlarini shu tartibda tuzdilar. Bu devonlar “Tuhfat us-sig‘ar” (“Yoshlik tuhfasi”), “Vasan ul-hayot” (“Umr o‘rtasi”), “G‘urrat ul-kamol” (“Kamolot ibtidosi”), “Baqiyayi naqiya” (“Saralarning sarasi”), “Nihoyat ul-kamol” (“Kamolot nihoyasi” deb atalib, umumiy hajmi 32645 bayt. Shoirning 2000 dan ortiq g‘azal, 300 atrofidagi qasida, 20 ga yaqin masnaviy, 1200 dan ziyod ruboiy, 500 tacha qit’a va boshqa janrlardagi asarlari ushbu devonlardan o‘rin olgan. U g‘azalda Sa’diy, qasidada Sanoiy, Anvariy, Xoqoniy, dostonnavislikda Nizomiyni o‘ziga ustoz deb bilgan.

Nizomiy Ganjaviy “Xamsa”siga javob yozish b-n xamsanavislik an’anasini boshlab bergan. Uning 1299–1302-yy.da yozilib, Alouddin Xiljiyga bag‘ishlangan “Xamsa”si quyidagi dostonlarni o‘z ichiga oladi: “Matla’ ul-anvor” (“Nurlarning chiqish joyi”), “Shirin va Xusrav”, “Majnun va Layli”, “Oyinai Iskandariy” (“Iskandar oyinasi”), “Hasht bihisht” (“Sakkiz jannat”). U Nizomiy dostonlarining shakli va syujeti, obrazlar silsilasini saqlagan holda, ularni o‘ziga xos talqin etdi va yangi mazmun b-n boyitdi. Nizomiy dostonlari shoir dunyoqarashining kengligi va bilimining teranligini namoyish etsa, D.X. “Xamsa”si ruhiyat teranligi va qalb boyligini ko‘z-ko‘z qiladi. Nizomiy dostonlarida tafakkur va tuyg‘u omixtaligining ajoyib nisbatini ko‘rsak, D.X. “Xamsa”sida inson qalbining nozik tebranishlari va badiiyat uyg‘unligining hassos va go‘zal tasvirlariga duch kelamiz. Aynan san’atkorona ishlanganligi u-n ham D.X. “Xamsa”si o‘zidan keyingi shoirlarga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Xalaflari g‘oya va mazmunda Nizomiyga ergashsalar ham, shakl va badiiyatda D.X.ga izdoshlik qildilar. Jomiyning “Bahoriston”da e’tirof etishicha, hech kim Nizomiy “Xamsa”siga D.X.dan o‘tkazib javob yozolmagan.

Bundan tashqari, u “Qiron us-sa’dayn” (“Ikki saodatli sayyoraning uchrashuvi”), “Miftoh ul-futuh” (“G‘alabalar kaliti”), “Duvalroniy va Xizrxon”, “No‘h sipehr” (“To‘qqiz falak”), “To‘g‘luqnoma” dostonlarini ham yozgan. 5 risoladan iborat “E’jozi Xusraviy” (“Xusrav mo‘jizasi”) nasriy asari esa adabiyot nazariyasi ma-

salalaridan bahs etadi. Uning “Manoqibi Hind” (“Hind manoqibi”) va “Tarixi Dehli” (“Dehli tarixi”) nomli tarixiy asarlar yozganligi haqida ham ma’lumotlar bo‘lsa-da, ular hozircha topilgan emas. O‘z davrining nuktadon va mashhur bastakori sifatida musiqaga bag‘ishlab yozgan risolasi ham bizgacha yetib kelmagan. Ko‘plab kuylarni unga nisbat beradilar.

N. “M.L.”da forsiy shoirlar devonidan o‘qimagani haqida aytadi va D.X. devoniga maxsus to‘xtalib, shunday ta’rif beradi: “Bataxsis, ishq--u dard ahlining rahbar va peshvari Amir Xusrav Dehlaviy devonikim, oshiqlikda dard-u niyoz va so‘z-u gudoz tariqin ul muntashir qildi va oning ishqi mash’alidin bu partav olami tiyra xokdonig‘a yoyildi”. N. shu asarida xabar berishicha, Amir Xisrav “Daryoyi abror” nomli forsiy qasida yozadi va unga Jomiy “Lujjat ul-asror” qasidasi b-n javob beradi. N. esa har ikkala aziz insonga “niyozmandlig‘ va gadolig‘ yuzidin” tatabbu’ qilib, “T.A.” qasidasini bitadi. Jomiy “Bahoriston” tazkirasida N. qasidasining matla’sini keltirib, uni maqtaydi. Shuningdek, Amir Xusravning “Mir’ot us-safo” qasidasiga “xalloq ul-maoniy” Xoqoniy Shirvoniy va Jomiylar tatabbu’ qilgani va N. har ikkala “buzrugvor”ga tatabbu’ qilib, “Nasim ul-xuld” qasidasini yozganini ham qayd etadi.

D.X. o‘z asarlarida barcha zamonlar u-n muhim bo‘lgan ko‘plab ijtimoiy-axloqiy masalalarni badiiy talqin qilgan. Odil podsho orzusi, davlat mustahkamligi va mamlakat farovonligi, raiyat tinchligi, ma’rifat tantanasi, komil inson muammosi kabi g‘oyalar shoir asarlarining asosiy mazmun-mohiyatini tashkil etadi. Shoirning ilohiy va dunyoviy ishq avj pardalarda tarannum etilgan, ezgulik va yovuzlik, ma’rifat va jaholat, qanoat va tama, saxiylik va baxillik, do‘stlik va dushmanlik, to‘g‘rilik va egrilik, xalqparvarlik va xudbinlik, kamtarlik va takabburlik, samimiyat va riyokorlik singari azaliy va abadiy mavzular hassoslik b-n yuksak badiiyat rishtasiga tizilgan asarlari asrlar davomida o‘z ahamiyatini yo‘qotmay, bil’aks, borgan sari kengroq o‘quvchilar ommasining estetik ehtiyojini qondirib, ma’naviy dunyosini boyitib kelmoqda. Badiiy so‘zning beqiyos qudratini namoyon qilgan bebaho asarlari ijod ahli u-n buyuk mahorat maktabi hisoblanadi. Shaklan go‘zal va mazmunan teranligi, jo‘shqin ruhi, jozib ohangi va yuksak badiiyati shoir asarlarining keng shuhrat qozonishi va abadiyatini ta’minlagan omillar sirasiga kiradi. Katta hayotiy tajriba va yuksak badiiy mahorat, beqiyos samimiyat va teran falsafiy mazmun, nafis shakl va ohorli tashbehlar, shoirona shavqu zavq, musiqiylik va ta’sirchanlik ajib bir tarzda uyg‘unlashib ketganligi jihatidan she’rlari xalq maqol-matallari kabi jaranglaydigan hikmatlarga boyligi tufayli D.X. ham Sa’diyga o‘xshab axloq muallimi sifatida ulug‘lanadi.

D.X. Hindistondagi forsiyzabon adabiyotning zabardast namoyandasi hisoblanadi. U rang-barang mavzu va janrlardagi badiiy yuksak asarlari b-n Hindistondagi forsiyzabon adabiyotning tamal toshini qo‘ydi. Uning ijodi tufayli Xuroson va Movarounnahr so‘z san’atida mavjud bo‘lgan barcha janrlar Hindiston adabiyotiga kirib bordi. Shoir ijodi Xuroson va Movarounnahr adabiyoti b-n Hindiston forsiyzabon adabiyotini o‘zaro bog‘lagan ko‘prik bo‘ldi. U qaysi janrda qalam tebratmasin, lafziy va ma’naviy san’atlarni mahorat b-n qo‘llab, o‘sha janrning ustozi darajasiga ko‘tarildi. Hind shoiri Nayyar: “Hindistonda fors she’riyati lochin urug‘idan bo‘lgan turkdan boshlanib, oybek urug‘idan bo‘lgan turkda nihoyasiga yetdi”, – deyishi bejiz emas. Bunda D.X. va Mirzo G‘olib ko‘zda tutiladi.

Shoir asarlarining umuminsoniy ahamiyati hisobga olinib, YUNESKO qaroriga muvofiq 1973-y.da D.X. ning 700 yilligi xalqaro miqyosda keng tantana qilingan.

D.X. o‘zidan keyingi Sharq adabiyotiga kuchli ta’sir o‘tkazgan mashhur so‘z san’atkorlari jumlasiga kiradi. Shoir asarlari o‘zbek xalqi orasida ham keng tarqalgan. “X.”si va devonlari qo‘lyozmasi ko‘plab ko‘chirilgan. Xususan, XV asr Hirot adabiy muhitida D.X. juda mashhur bo‘lgan. M-n, Husayn Boyqaro D.X. ning 18 ming baytdan iborat muxtasar devonini ko‘chirtirgan. Samarqand va Toshkentdagi she’riyat

majlislarida ham shoir ijodi bahs-u munozara obyektiga aylangan. Zayniddin Vosifiy “Badoye’ ul-vaqoye’” asarida 1515–1525-yy.da Toshkentdagi adabiy davralarda D.X. ijodi xususida qizg‘in tortishuvlar bo‘lib turganligi xususida yozgan. N. o‘z “X.”sini yaratishda Nizomiy b-n bir qatorda, D.X. dan ham kuchli ta’sirlangan, har bir dostoni muqaddimasida uni ustozlari qatorida ehtirom b-n tilga olib, ijodiga yuksak baho bergan. M-n, “H.A.”da uni so‘z iqlimining shohi deb ulug‘lasa, “F.Sh.”da Qaqnusga o‘xshatadi; “L.M.”da Hind sehrgari sifatini bersa, “S.S.”da uning “Xamsa”sini ma’nolar jahoni deb ta’riflaydi. “S.I.”da esa tatabbu’navislik an’anasini boshlab bergan sohir so‘z san’atkori sifatida vasf etadi. Asar nihoyasida so‘z b-n Ajam-u Arabni olgan D.X. Jomiy b-n birga tushida “Xamsa”ni yakunlagan N.ni qo‘lida tutib, Nizomiy oldiga olib boradilar:

Tutub Jomiy-u Xusrav iki qo‘lum,
Nizomiy sari boshladilar yo‘lum.

N. “D.F.”da 32 ta g‘azaliga tatabbu’ bitib, uning tavrida bir g‘azal yozgan. Falsafiy-tasavvufiy mavzudagi “Daryoi abror” (“Pok kishilar daryosi”) qasidasiga javoban “Tuhfat ul-afkor” (“Tafakkur tuhfasi”) qasidasini yaratgan.

Ogahiy “Hasht bihisht” dostonini nasrda o‘girgan. Keyingi davrda shoir asarlarini Vasfiy, Chustiy, Sh.Shomuhamedov, J.Kamol, N.Muhammad, J.Suvonqulov, E.Ochilov kabi tarjimonlar tarjima qilganlar. Sh.Shomuhamedov, M.Imomnazarov, H.Homidiy, M.Baqoyev, B. Musayev, M.Imomnazarov, I.Nizomiddinov, J. Mirsaidov, M.Kenjabek, G.To‘ychiyevalar shoir hayoti va ijodi yuzasidan turli darajada tadqiqotlar olib borganlar. Shoir asarlaridan namunalar o‘zbek tilida bir necha marta chop etilgan

Ad.: *Алишер Навоий. ТАТ. 10 жилдлик, 6-7-8-9-10-жилдлар. – Т., 2011; Хусрави Деҳлавий. Мунтахабот. – Д., 1960; Амир Хусрави Деҳлавий. Осори мунтахаб. Дар 4 жилд. – Душанбе, 1971–1975; Амир Хусрав Деҳлавий. Ҳикматлар. – Т., 1973; Инжулар уммони. – Т., 1988; 333 рубоий. – Т., 1991; Амир Хусрав Деҳлавий. Рубоийлар // Минг бир рубоий. – Т., 2009; Амир Хусрав Деҳлавий. Рубоийлар // Донишмандлар туҳфаси – Т., 2009; Амир Хусрав Деҳлавий. Ёр васли. – Т., 2011; Абдураҳмон Жомий. Баҳористон. – Т., 1997; Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар бўстони. – Т., 1981; Адабиёти форсу точик дар асрҳои XII–XIV. – Душанбе, 1983; Ҳомидий Ҳ. Кўҳна Шарқ дарғалари. – Т., 1999; Имомназаров М. Жаҳон тан олган шоир // “ЎзАС”, 2003, 17 октябрь; Очилов Э. Соҳир сўз санъаткори // Барҳаёт сиймолар. – Т., 2012.*

E.O., S.R.

DEHLAVIY HASAN – (1254–1338) fors-tojik adabiyotining Hindistonda etishgan iste’dodli namoyandalaridan biri. She’riy devon sohibi. “Ishqnoma”, “Favoyid ul-fuod” kabi asarlarning ham muallifi. H. – Dushanbe, xususan, g‘azalchilik taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shgan shoir.

N. yashab ijod qilgan XV asrning ikkinchi yarmida Xurosonda, xususan, Hirot adabiy muhitida D.H. she’rlari ham ko‘p o‘qilgani va uning yuzasidan ayrim vaqtlarda adabiy bahslar yuz bergani ma’lum. N. “X.M.” asarida kunlarning birida shunday bir majlisda D.H.ning:

Misoli qatrayi boron sirishki man hama dur shud,
Chunin osor dihad, alhaq, tului chun tu suhayle, –

degan baytining matni yuzasidan qattiq bahs bo‘lib o‘tganini, bu baytda “dur bo‘ldi” (“dur shud”) iborasini “xun bo‘ldi” (“xun shud”) deb o‘zgartirishga hojat yo‘qligini, bu bahsda Jomiy N.ning fikrini qo‘llab-quvvatlaganini xabar qiladi.

N. “N.M.” asarida D.H. biografiyasi va ijodiga uning o‘z zamondoshlari b-n, xususan, Amir D.H. b-n munosabatlariga maxsus to‘xtalib, hind tarixchilaridan birining D.H. axloqiy qiyofasi, insoniyligi, shoirona tabiati haqida: “... majolis latofat va zarofatida va aql istiqomati va sufiya tariqida, qanoat luzumi va e’tiqod pokligi va taj-

rid va tafrid tavrida va olamda har ne kelsa, xush bo‘lmoq va xush o‘tkarmoq tariqida andoq kishi oz ko‘rubmen”, – deganini ta’kidlab o‘tgan.

D.H. she’riyatini, xususan, uning she’riy devonini N. sinchiklab o‘rgangan, uning g‘azallariga forsiy tilda tatabbu’lar ham bog‘lagan. N. ning “Munavvar ast ba ro‘yi tu didayi jonam...”, “Garchi baloyi xumor kard fuzun huzni man...”, “Chun shuda sharmanda ro‘yi oftob az ro‘yi tu...” kabi misralar b-n boshlagan g‘azallari, hatto o‘zbek tilidagi bir qancha g‘azallari D.H. g‘azallariga tatabbu’ formasida yaratilgan. N. D.H. she’riyatidan katta ma’naviy ozuqa olgan, shuning u-n uning she’riyatidagi ayrim obrazlardan ijodiy foydalanishga harakat qilgan. D.H. ning N. kabi muxlislari harakati b-n XV asrning ikkinchi yarmida shoir devoni bir necha nusxalarda ko‘chirtirilgan. Ularning ayrim namunalari hozir Abu Rayhon O‘zR FA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalari fondida saqlanmoqda.

N.ning D.H. ga hurmat va e’tiqodi, ayniqsa, “X.”ning so‘nggi dostoni – “S.I.”da yorqin namoyon bo‘lgan. N. ulug‘ “X.”ni yozishni tugallab, bir dam ko‘zini yumib, xayolga beriladi. Ko‘z oldida shoirlar to‘plangan ajoyib bir bog‘-bo‘ston paydo bo‘ladi. N. o‘sha bog‘ tomon borar ekan, “shoirvash”, “jamoli xush-u xay’ati dilkash” bir odam kutib oladi. Bu D.H. edi. U N.ni shoirlar majlisiga taklif qiladi va boshlab boradi. Bu majlisda ulug‘ dostonnavislardan Abulqosim Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy, Shayx Sa’diy, Unsuriy, Sanoiy, Xoqoniy, Anvariy, Jomiylar savlat to‘kub, N.ni kutib o‘tirishgan va uni o‘zbekcha “X.”ni yozib bo‘lishi munosabati b-n tabriklamoqchi ekan. Bu o‘rindagi N. tasvirida D.H. shirinso‘z, mehribon mezbon – shoir qiyofasida gavdalantirilgan. Binobarin, N.ni D.H. ning yaxshi shoirligigina emas, insoniyligi ham o‘ziga mahliyo etgan. Shuning u-n D.H. ni N.ning unutilmas salaflaridan biri deb hisoblashga haqlimiz.

Ad.: *Алишер Навоий, Садди Искандарий. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Ҳасани Деҳлавий. Мунтахабот. – Душанбе, 1965; Ҳайитметов А. Алишер Навоий ва Ҳасан Деҳлавий. (Қаранг: “Навоий ва адабий тасир маалалари”. Мақолалар тўплами.) – Т., 1968.*

Ab.H.

DEHLI – Hindiston poytaxti. Shimoliy Hindiston hududida Jamna daryosi bo‘yida joylashgan. VIII asrning birinchi yarmida paydo bo‘lgan, deb hisoblanadi. O‘rta asrlarda Hindistonning muhim madaniy, iqtisodiy, siyosiy markazi hisoblangan. D. sultonligi vujudga kelgan vaqtdan boshlab (XIII asr boshi) poytaxt bo‘lgan. Boburiylar davrida ham poytaxtlik maqomini saqlagan.

D. shahri nomi va u b-n bog‘liq qaydlar N. asarlarida uchraydi. Jumladan, “S.I.”da D. Hindistonning poytaxti ekani aytilib, Hind royi Iskandarni D.da ziyofat qilmoqchi bo‘lgani, lekin Iskandar buni rad etgani hikoya qilinadi:

Dedilarki: “Dehli erur poytaxt,
Munosibdurur tortmoq anda raxt”.
Dedi shahki: “shahr ichra sig‘mas sipoh,
Kerak beshada elga oromgoh”.

D. N.ning “N.M.” asarida ham ko‘p bor zikr etilgan. Mavlono Fahruddin Zohid zikrida “Dehli shahrida sokin ermish” deb ma’lumot beriladi. Alouddin Kirmoniy zikrida N. uni “Dehli, balki Hindiston mulkining afzali” deb ta’riflaydi. Qozi Shafiuddin Buxayro haqida “Dehlining qozisi ... erdi”, – deb yozadi. Qirq abdol zikrida ularning dunyo kezib yurib, D.ga borib to‘xtaganliklari va umrlarining oxirigacha shu yerda bo‘lganliklari aytib o‘tiladi. Bulardan boshqa ko‘p o‘rinlarda ham bir qator Hind mashoyixlari zikrida ayrimlarining D.da yashagani yoki mozori D.da ekani qayd etilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; ЎзМЭ, 3-жилд. – Т., 2002; Гопал Сингх. География Индии. – М., 1980.*

Q.E.

DEHXUDO Aliakbar (1878–1956, Tehron), olim, yozuvchi, siyosiy jurnalist va Eron FA a’zosi. Otasi Qazvin viloyatidan. D.A. – Tehron madrasalarida ta’lim oladi. Ikki yil Venada yashab, fransuz tilini o‘rganadi va 1906-y. – Tehronga qaytadi. U bir muddat “Suri Isrofil” gazetasini nashr qildiradi. She’r va maqolalar yozib turadi.

Birinchi jahon urushidan so‘ng D.A. siyosiy ishlardan o‘zini chetga olib, ijod b-n shug‘ullanadi. U Abu Rayhon Beruniy hayoti va ijodi haqida tadqiqot ishi olib borib, yaxshi natijalarga erishadi. Shu b-n uning hayotida yangi davr boshlanadi, D.A. Manuchehri Domg‘oniy, Nosir Xisrav, Mas’ud Sa’diy Salmon, Farrux Seyistoniy, Saidhasan Ashraf, Hofiz Sheroziy va boshqa shoirlar devonlarini sharh, lug‘at, zarbulmasal va hikmatlarni o‘z ichiga olgan “Amsoli hikam” (4 jildlik) kitobini nashr ettiradi. D.A. boshchiligidagi salmoqli ishlaridan biri “Lug‘atnoma” nomli katta hajmdagi ensiklopedik lo‘g‘atidir. Bu ulkan asar D.A. vafotidan keyin nashrga tayyorlangan, lekin “Dehxudo lo‘g‘atnomasi” deb yuritiladi. “Dehxudo she’rlari majmu’asi” (1955) va “Fransuz va forsiy” lug‘ati ham D.A. vafotidan keyin nashr ettirilgan.

D.A. N. hayoti va ijodi haqida ma’lumot berib, “Alisher ibn Ulus yo Kichkina-Navoiy Chig‘atoyi va mulaqqab ba Nizomiddin, donishmand va shoir buda...majlisi vay majma’u ulamo va fuzaloyi on ro‘zgor bud... osori xayriya bisyori azu ba joyi mondast, ki azon jumla ayvoni janubiy sahni atiqi hazrati Rizo (a.s.), obi nahri xiyoboni Mashhad, maqbarai Fariduddin Attor Nishopuriy dar Nishopur va buq’ai Amir Qosim Anvor dar qariayi Langar. Te’dodi in osori uro to sesadu haftod navishtand... ” (Nizomiddin laqabli Alisher ibn Kichkina Navoiy donishmand va shoir bo‘lgan. Uning otrofida o‘sha zamon ulamou fuzalolari jam bo‘lgan... xayriya ishlari ko‘p bo‘lib, jumladan, hazrati Rizo (a.s.) maqbarasi janubiy qismidagi baland ayvonli bino, Mashhad ichidan oqib o‘tadigan anhor, Nishopurda Fariduddin Attor maqbarasi va Langar qishlog‘idagi Amir Qosim Anvor buq’asi (maqbara). Navoiy o‘z hisobidan qurdirgan inshootlar 370 ga yaqin.)

D.A. N. asarlarini birma-bir sanab o‘tib, shulardan ba’zilarining – Tehron kutubxonalarida saqlanayotgani haqida xabar bergan va N. haqidagi maqolasini yozish u-n foydalangan, – Tehrondagi “Sipehsolor” kutubxonasidagi adabiyotlarni sanab o‘tib, quyidagilarni zikr etadi: “Habib us-siyar”, “Qomus ul-a’lom”, “Lug‘at ut-tarixiya”, “Jug‘rofiyai Ahmad Ruf’at”, “Tazkirai Nasrobodiy”, “Dastur ul-vuzaro”, “Majolis ul-ushshoq”, “Tuhfayi Somiy”, “Mir’ot ul-xayol” va boshqalar.

Ad.: *Алишер Навоий. Вақфия. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алиакбар Деҳхудо. Луғатнома. – Теҳрон. 1998; 11-жилд; ЎзМЭ. – Т., 2006; ЭСТ. – Душанбе, 1980.*

Muh.A.

DIYDOR – forsiy so‘z bo‘lib, yuz, chehra, shuningdek, ko‘rishish, uchrashish ma’nolari ham mavjud. N. asarlarida ikki ma’nosiga duch kelinadi.

Bizga davron bog‘idin bir sarvi gulruhsor bas,
Gohi andin jilva gohi davlati diydor bas.

N. asarlarida D. aksariyat Alloh taolo b-n jannatdagi diydorlashuv umidi ma’nosida talqin qilinadi:

Hur-u jannatdin murodim davlati diydor erur,
Yorsiz bog‘-u kanizi besh emastur ulu-bu.

Hurlar va jannatdan murodi Yaratganning D.i ekanligi, agar Yor bo‘lmasa, bog‘ va kanizlarning qiymati yo‘qligini shoir go‘zal badiiyatda ifodalaydi. “N.M.” tazkirasida bu yanada ochiq ko‘rinadi. Ali bin Muvaffaq Bag‘dodiy (q.s.)ning ma’naviy holidan shunday xabar beradi: “Ul debdurki, Xudoyo, agar seni

do‘zax qo‘rqunchidin parastish qilur bo‘lsam, mani do‘zaxga tushur. Va agar behisht umididin parastish qilur bo‘lsam, behishtga tushurma. Agar sening mehring jihatidan parastish qilur bo‘lsam, bir diydor ko‘rsat. O‘zga ne qilsang qil!”

Mashoyixlar u-n muhimi ko‘ngil diydori bo‘lgan. “N.M.”da o‘qiymiz: “Abu Ya’qub Mazkuriy (q.s.)dan so‘rdilarkim, tavakkul nedur? Dedi: ixtiyor tarki… Shaqiq Balxiydin so‘rdilar, dedi: ajzda g‘arqi diydor Shibliydin so‘rdilar, dedi: ko‘ngul diydorida barcha elni unutmoq”.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10-жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005. Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. – Душанбе, 1987.*

I.H., E.O., Z.R.

DILBAR – forsiy dilni tortuvchi, ko‘ngil oluvchi ma’nosida bo‘lib, badiiy adabiyotda go‘zal, yor, sevgili, mahbuba. D. mahbuba obraziga uning go‘zallik sifatini ham qo‘shadi. Tasavvufda asirlik holi bo‘lib, D. istig‘nosi, beparvoligi b-n ko‘ngilda g‘am-anduhni orttirib, solikni qabz holiga tushiradi.

Sen tarahhum qil, Xudoyo; bu qotig‘ holatdakim,
Meni zor-u dilbarimni forig‘ul-bol aylading.

Ba’zi manbalarda esa bast holini namoyon qiladi, chunki u ko‘ngilda sevinch, farah va muhabbat paydo qiladi. Oriflar tilida tajalliyot vaqtida ko‘ngilni fayzli va nurafshon qiladigan narsaga D. deyiladi:

Ey Navoiy, xush erur xilvat, agar bo‘lsa kishi
Dilbari birla ikov, bo‘lmasa lek anda birav.

N. lirikasida oshiqning murodi D. – ma’shuqa istagi b-n bir bo‘lishi kerakligi ta’kidlanadi:

Murodi gar emas dilbar murodi,
Ilohiy bermagil oshiq murodin.

N. asarlarida “Dilbari tarso” iborasi ham ko‘p qo‘llanilib, tarso go‘zali ma’nosida keladi:

Aylagay bir damda yuz dayri kuhan tarkin Masih,
Ko‘rsa zulmekim qilur ul dilbari tarso manga.

Devonlarda *“dilbar”, “dilbarim”, “dilbaro”, “ey dilbarim”* kabi undalmalar b-n murojaat qilinadi.

Dilbaro, sendin bu g‘amkim
menda bordur, kimda bor?
Furqatingdin bu alamkim
menda bordur, kimda bor?

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011.*

Z.R.

DILOROM – “F.Sh.” dostonida tasvirlargan Mehinbonu saroyidagi o‘n kanizakdan biri. Ularning nafaqat ismi go‘zal, jismi ham har qanday ta’rifdan ustun turadi: “Bari ham sarvqomat, ham dilorom”. Buning ustiga, ularning har biri bir sohada tengsiz: biri she’r, biri musiqa, biri tarix, biri hisob, biri mantiq (logika), biri nujum (astronomiya), biri balog‘at (adabiyot nazariyasi), biri hikmat (falsafa), biri haqoyiq (mavjudot haqiqatlari haqidagi fan), biri muammo yechishda o‘z davrining eng oldi bo‘lgan: bu fanlarning yuzlab ustasidan bularning bittasi mohirroq edi:

Bu fanlarda bular bir-birdin ahsan,
Yuz fanliq aro har qaysi yakfan.

Lekin shoir ularning qaysi biri qaysi sohada mohirligini aniq qilib ko‘rsatmagan – biri u, biri bu hunarda mumtoz deb umumiy yo‘sinda ta’kidlab o‘tadi. Nomlar va hunarlar ketma-ketligi bo‘yicha D. “ash’or bahri ichra g‘avvos” bo‘lib chiqadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011.*

E.O.

DILORO – “F.Sh.” dostonida tasvirlangan Mehinbonu saroyidagi o‘n kanizakdan biri.

D. “advor davri ichra raqqos” edi

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011.*

M.M.

DILOSO – “F.Sh.” dostonida tasvirlangan Mehinbonu saroyidagi o‘n kanizakdan biri.

U “mantiq rusumida raqamkash”, deya tavsiflangan.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011.*

M.M.

DILSHODI BARNO (1800, O‘ratepa – 1907, Qo‘qon) – shoira. Rahmonqul So‘fiy Istaravshaniyning qizi. Amir Umarxon O‘ratepani zabt etganida boshqa asira qizlar qatorida uni ham Qo‘qonga olib ketgan. Lekin Dilshod ko‘p o‘tmay saroydan qochib, Toshmaxdum degan kishining uyidan panoh topadi va unga turmushga chiqadi. Umrining oxirigacha (51 yil davomida) maktabdorlik qilib, 891 nafar qizni savodli qiladi. XIX asr shoiralari Xayriniso, Bahriniso, Anbar otin, To‘tiqiz uning shogirdlari hisoblanadilar. Dilshoddan “Muntaxab ul-ash’or” (“Saylanma she’rlar”) to‘plami, “Ta’rixi muhojiron” (“Muhojirlar tarixi”) risolasi va taxminan 1200 misra atrofidagi parokanda she’rlar meros bo‘lib qolgan. “Ta’rixi muhojiron”da o‘sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy voqealar, Amir Umarxonning O‘ratepani zabt etishi va boshqa jang-u jadallari, O‘rta Osiyoning Rossiyaga qo‘shilishi va boshqalar haqida so‘z boradi. Dilshod she’rlarida ma’rifatparvarlik g‘oyalari muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, ishq-muhabbat, insoniylik ohanglari tarannumini ham ko‘ramiz.

“Ishq so‘zini Navoiydin o‘qub, ta’lim olub” o‘tgan D.B. ijodida buyuk salafining kuchli ta’sirini ko‘ramiz. U qator g‘azallarida N.ga murojaat qiladi, uni tilga oladi. O‘zining e’tirof etishicha:

Agar Barno g‘azalxon bo‘lmoq istar,
Navoiy pir deb, niyat erur farz.

N.ning “Aylagach” radifli g‘azaliga muxammasini shogirdi Anbar otin ta’rifi asosiga quradi:

Anbar otun lablarin la’li Badaxshon aylagach,
Tishlarini chun sadaf durri Zarafshon aylagach,
Ikki nargis ko‘zini hamchun duraxshonaylagach,
Husni ortar yuzda zulfin anbarafshon aylagach,
Sham ravshanroq bo‘lur, torin parishonaylagach.

D.B. bir g‘azalida N. devonining ilk g‘azali matla’sidagi “Yor aksin mayda ko‘r” iborasini tazmin qilib oladi:

Bu muhabbat jomidur, deb dahrdin chiqdi nido,
“Yor aksin mayda ko‘r”, deb jomdin chiqdi sado.

D.B. baytida g‘azalning “qadah quyoshining aksi” ma’nosidagi dastlabki arabiy iborasini tazmin qiladi:

Yor deb ovoza bo‘lsam, qo‘lg‘a olg‘um jomni,
“Ashraqat min aks” bo‘lsa, manga bastiynat laziz.

Shoira baytlaridagi irfoniy ishoraga ko‘ra, mayni ichgan yorni ko‘radi, ya’ni oshiqning ko‘ngil ko‘zgusida ma’shuq jamol ko‘rgizadi. Voqean, N. baytining ma’nosi ham Xudoning jamolini uning olamdagi rang-barang jilvasida ko‘rish haqida ekanligi ma’lum:

Ashraqat min aksi shamsil-ka’si anvorul-hudo,
“Yor aksin mayda ko‘r!” – deb,jomdin chiqti sado.

“Quyosh kosasidan hidoyat nurlari porlab ko‘rindi va qadahdan “Yor aksini mayda ko‘r!” – degan sado taraldi”.

Irfoniy istilohda olam – qadah-u may – ilohiy fayz ekanligini ko‘zda tutsak, dunyodagi hamma narsa ilohiy nurning jilvalaridan iborat ekanligi ma’lum bo‘ladi.

Xoja Hofiz ta’rifiga bag‘ishlangan g‘azali N. ning “lison ul-g‘ayb” haqidagi lutfini keltiradi:

Navoiy naqlida "to'tiyi xushnavo" erdi,
Lutfiki, bahrida yozmish nechand g'azal, Hofiz.

Ma'lum bo'ladki, D.B. ham N.ni ijod yo'lida o'ziga rahnamo deb bilgan qalam ahli sirasiga kiradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Дилшод. Танланган асарлар. – Т., 1972; Зебуннисо, Дилшод, Анбар отин шеъриятидан. – Т., 1981; Қодирова М. Дилшод. – Т., 1971.*

E.O., M.A.

DIN (ar. – mulk, hukm, hisob, jazo, tadbir, bo'ysunish, itoat qilish, ibodat, parhez, yo'l tutish, odat qilish, e'tiqod qilish va boshqa ma'nolarni bildiradi) – Alloh taoloning bandalariga yuborgan hukmlari, ko'rsatmalari, talablari, xabarlari, buyruqlari va h.k. D. lafzi Qur'onda 100 marotabadan ortiq qo'llangan bo'lib, yuqoridagi ma'nolarni qamrab olgan. D. ahkomlarini payg'ambarlar odamlarga etkazgan va haq dinga da'vat etishgan. D. aqida, shariat va tariqat bobidagi ilohiy ko'rsatmalar to'plami. Imom Buxoriy hadislarida keltirilgan mashhur "Jibril hadisi"ga ko'ra, D – imon, islom va ehsondan iborat. Musulmon olimlari D. haqidagi ta'riflarni umumlashtirib, sog'lom aql egalarini bu dunyoda salohiyatga, u dunyoda najotga eltuvchi ilohiy ko'rsatmalar ekanligini ta'kidlashgan. Islom D.ida D.ni qabul qilgan odam mo'min, musulmon, inkor qilgan kofir, Allohdan boshqa narsalarga ibodat qilgan kishi mushrik deyiladi. D.ning aslida bo'lmagan va keyinroq kiritilgan ba'zi amallar, odatlarga bid'at deyiladi va dinimizda bid'at qoralanadi.

Islomda D. tushunchasining o'ziga xos ma'nolari bor. Jumladan: D. so'zi ko'pincha "al-Islom"ga sinonim sifatida qo'llanadi. N. ham D.ning rivojiga cheksiz amaliy hissa qo'shdi. U qurgan o'nlab masjid-madrasalar va xonaqohlar zamondosh tarixchilar tomonidan e'tirof etilgan. Shoir o'z asarlarida D. tushunchasiga o'ta mas'uliyat va ixlos b-n yondoshadi. U daho shoir bo'lish b-n birga ulug' olim hamdir. N. nasriy va nazmiy asarlarida u yoki bu darajada D.ga, islomga va shariat qonun-qoidalariga to'xtalgan. Ayniqsa, "S.M.", "A.", "T.A.H.", "N.J.", "N.M." kabi asarlarida D. masalalarining o'ziga xos qirralarini yoritib berdi. "X." dostonlarida, ayniqsa, "H.A."ning imon va islom boblarida diniy qarashlar va ahkomlarga batafsil to'xtaldi. Shuningdek, "M.Q." asarida "D. va dunyo", "D. va islom", "D. va imon" kabi so'zlar yonma-yon tarzda ko'zga tashlanadi. Ulug' shoir bu asarida ilm olishning zaruriyati va mohiyati haqida so'z yuritib, ilm dunyoda yaxshi yashash u-n emas, balki D.ni quvvatlantirish u-n zarurligini ta'kidlab, saxovatsiz boyni yog'insiz bulutga, amal qilmaydigan olimni ustiga yuk ortilgan markabga o'xshatadi. Boshqa bir tanbehida "Dunyoga taalluq ishini sahl tut va D. ishida sud (foyda) tasavvuri bila ko'ngulni ovut", deydi. Shoir may haqidagi o'gitlarida uning qatralarini "D. va iymon" uyini buzadigan balo seliga va inson hayotini barham beradigan ranj-u mashaqqat girdobiga o'xshatadi. Shuningdek, bezori, bebosh, doimo sarxush bo'lib, birovlarni haqorat qiluvchi, odamlarga aziyat yetkazuvchi "yatim va laimlar"ni "ne aql alarda ne D., ne hayo alarda va ne tamkin", deya mazammat qiladi. Gohida D. deganda islom, islom deganda D. tushuniladi. Biroq D. so'zi ko'proq umumiy ma'noda iymon, islom va shariat hukmlarini qamrab oladi. "S.M."ning quyidagi satrlarida D. va islom so'zlari ayni ma'noda faqat mazmunni kuchaytirish uchungina yonma-yon keltirilgan.

Dedimkim, aylayin bir nusxa mastur
Ki, bo'lg'ay din-u islom uyi ma'mur.
Nekim, din ahlig'a bo'lg'ay zarurat,
Bari tutqay ani bilgancha surat.

N. boshqa D. nomlari va vakillarini ham asarlarida eslab o'tsa-da, lekin D. ahli deganda mo'min-musulmonni nazarda tutadi. "S.M" asarida aqida masalasi b-n bog'liq "azobi qabr" haqida shunday deydi:

Azobi qabr erur kufr ahli xosiy,
Yana din ahlidin ba'zi bo'lsa osiy.

Maz.: kofirlar qabr azobini totadilar. Lekin ba’zi D. ahli (musulmon kishi) ham osiy, gunohkor bo‘lsa, qabr azobiga mubtalo bo‘ladi.

N. “S.I.” dostonining oxirgi qismlarida shahzoda Badiuzzamon Mirzoga bir qator nasihatlar qiladi. Jumladan, yosh avlodning ilm olishiga qayg‘urish lozimligi, aks taqdirda, “yoshlarga maktab yo‘li” yopilsa, keksalar mazhab yo‘lini yo‘qotadi. Natijada, D.ga, ezgulikka va mazhablarga darz ketadi:

Chu yoshlarg‘a bog‘lansa maktab yo‘li,
Bo‘lur gum ulug‘larg‘a mazhab yo‘li.

Xalal yo‘l topar to‘g‘ri oying‘a ham,
Tushar raxna islom ila ding‘a ham.

“H.A.”ning “Iymon sharhi” bobida hazrat Payg‘ambarimiz (s.a.v.)ning so‘nggi payg‘ambar ekani, D.i barhaq, mukammal, qiyomatgacha boqiy va u islom ekanini ta’kidlaydi:

Xatm anga oyini risolat tamom,
Din aning islomi-yu bas, vassalom.

N. ba’zi tasavvufiy-irfoniy she’rlarida soqiy, may, sanam, yor, ishq, but, mayxona kabi timsollar vositasida oshiqlik va oriflik hollari hamda maqomlarini ta’riflaydi. Tashqaridan qaraganda, bunday she’rlar D.ga zid yoki shirk kabi taassurot uyg‘otadi. Lekin bu taxlit she’rlar Allohning D.iga zarra qadar daxl qilmagani, aksincha, ularda yuksak ilohiy ishq-muhabbat tuyg‘ularining ifodalangani ma’lum bo‘ladi.

Xullas, N. D. rivojiga katta amaliy yordam bergan va o‘z asarlarida ham bu tushunchasini hassoslik b-n ta’rif va tavsif qilgan benazir shaxsdir.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Назм ул-жавоҳир. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Сирож ул-муслимин. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Арбаъин. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Ислом энциклопедияси. – Т., 2017; Аҳмад Муҳаммад Турсун, Муҳаммад Шариф Жуман. Ислом дини. – Т., 2013; Ҳаққул И. Навоийга қайтиш. 1-4-китоблар. – Т.,2021.*

S.R.

DIN ILMI – N. asarlarida o‘sha davr ilm sohasining barcha turlari tilga olinadi. Riyoziyot (matematika), handasa (geometriya), ilmi hay’at, musiqa, ilmi nujum (astronomiya), hikmat, falakiyot, tib, tarix, lug‘at, adabiyotshunoslikka oid ilmlar va h.k. N. ilm sohalarining o‘ziga xos ahamiyati borligi, ayrimlariga ko‘proq e’tibor berish va egallash lozimligi haqida qayg‘uradi. “F.Sh.” dostonida shahzoda Abulfavoris Shohg‘arib Bahodirga nasihat qilar ekan, shoir uni ilm olishga undaydi. Bir ilm sohasini egallab, boshqalariga o‘tishni, lekin “ilm ul-yaqin” bo‘lgan D.I.ga yetganda to‘xtashni, uni “shior” qilib olishni ta’kidlaydi. Chunki boshqa ilm sohalari shaxobchalar bo‘lsa, D.I. asldir. N. D.I.ni uch qismga bo‘ladi:

Ulum ichra o‘qusung yuz tuman fasl,
Tamomi far’u, din ilmi erur asl.

Bu din ilmiki xomam qildi tahrir,
Erur fiqh-u hadis-u so‘ngra tafsir.

Chu takmil o‘ldi bu uch ilm sen bil,
Yana har ilm maylin qilma, yo qil.

Va lekin tibbu hikmat ham erur xo‘b
Ki, sihhatdur kishi jismida matlub.

Demak, D.I. fiqh (islom qonunshunosligi), hadis va tafsir (Qur’on oyatlari ma’nolarini tarjima va sharhlash b-n bog‘liq soha)dan iborat. Shoirning e’tiroficha, bu ilm sohalarini majburan o‘rganish kerak. Qolgan sohalarni kishi xohlasa,

o‘qisin, xohlamasa, o‘qimasin. Yana salomatlik b-n bog‘liq tib ilmini o‘rganish ham zarar qilmaydi. Ba’zan bo‘sh vaqtlarda tarix kitoblari va hikmatlar sirridan ham boxabar bo‘lmoq lozim. Ammo N. D.I.ni quruq o‘rganish bilan ish bitmasligini quyidagi qit’asida ochiq bayon qilgan:

Ilmi din kasb qilki, sud ermas,
Charx mushkullarini hal qilmoq.

Lekin ul ilm dog‘i naf’ etmas,
Bilibon bilmasa amal qilmoq.

Tarj.: Agar charx mushkullarini hal qiladigan darajada olim bo‘lsang ham, din ilmini o‘rganmasang befoyda.

D.I. deganda, Haqni va haqiqatni tanitadigan, Haqqa yetishga vosita bo‘ladigan, poklikni ta’minlaydigan, e’tiqod va axloqni tuzatadigan ilm anglashiladi. Lekin D.I.ni o‘rganib, unga amal qilinmasa, hech bir foydasi yo‘q. Ko‘rib o‘tganimizdek, ulug‘ shoir D.I. o‘rganishni targ‘ib qilgan. Ammo o‘qimoq barobarida, unga amal qilishni, komil din bilimdoni bo‘lishni muhimroq sanagan.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Аҳмад Муҳаммад Турсун. Муҳаммад Шариф Жуман. Ислом дини. – Т., 2013; Алишер Навоий. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Комилов Н. Тасаввуф. – Т., 2009; Ҳаққул И. Занжирбанд шер қошида. – Т., 2021; Жабборов Н. Маоний аҳлининг соҳибқирони. – Т., 2021.*

S.R.

DIN VA NAVOIY – N. yoshlikdan imkoniyati keng bo‘lgan ma’rifatli islomiy oilada o‘sdi. Islom haqidagi bilimlarni, avvalo, oila davrasida, so‘ngra madrasalarda o‘qib, ilmiy majlislarda faol ishtirok etib, din sohasida ham yetuk olim bo‘lib yetishdi. Keyinchalik katta imkoniyatlarga ega bo‘lib, din va mamlakatning rivoji u-n juda ulug‘ ishlar qildi. Mashhur bir hadisda: “Odamlarning yaxshisi odamlarga manfaati yetadiganidir”, deyiladi. Shuning u-n ham N. “xalq g‘ami”ni yemagan odamni “odam” demaydi. O‘zi esa bir dindor, diyonatkor shaxs sifatida qo‘lidan kelgancha, umrining oxiriga qadar xalq g‘amida yashadi.

Bobur “Boburnoma”da N.ning “ahli fazl” va “ahli hunar”ga “muqavviy va murabbiy” bo‘lgani, ko‘plab “binoyi xayr”lar qilgani va boshqa bir odamning bunday savobli ishlar qilgani ma’lum emasligini maqtab yozadi. Shuningdek, Bobur Kamoliddin Husayn Gozurgohiy kabi mutasavviflar yig‘ilib, N. huzurida vajd va samo’lar qilgani haqida ham xabar beradi.

Tarixchi Xondamirning yozishicha, N. juma va jamoat namozlarini tashkil qilishdagi sa’y-harakat va g‘ayrati shu darajada bo‘lganki, Marg‘aniy bog‘i ichida chiroyli bezaklar b-n ziynatlangan bir masjid qurib, o‘z zamonasi qorilarining sarasi bo‘lgan Xoja Hofiz Muhammad Sultonshohni ushbu masjidga imom tayinlagan. N.ning o‘zi ham bu masjidda besh mahal jamoat namozlariga doimo qatnashgan. Shuningdek N. saroy xizmatchilarini namozga rag‘batlantirgan, ulardan birortasi shariat ahkomlariga zid ish qiladigan bo‘lsa, uni shariat qonun-qoidalari asosida jazoga tortish u-n bir muhtasib ham tayinlagan. Xondamir “tasavvuf va iymon ahlining qiblasi”, ya’ni, N. tarafidan qurilgan o‘nlab madrasalar, xonaqolar, oltmishga yaqin rabotlarning nomlarini sanab o‘tadi. O‘z davrida N.ga bag‘ishlangan yigirmaga yaqin kitoblarni ham nomini keltiradi. N. bevosita islom dini va hukmlariga oid “S.M.”, “A.”, “N.M.”, “T.A.H.”, “M.Q.” kabi asarlarida musulmonga xos bo‘lgan iymon-e’tiqod, ilm-u ma’rifat va odob-axloqdan bahs yuritdi va shu orqali islom diniga munosib hissa qo‘shdi. U komil din kishisi, taqvodor va haqiqatparast shaxs sifatida ibodatlarini va din arkonlarini mukammal bajarar, boshqalardan ham shuni talab qilardi. Uning Alloh va Rasuliga bo‘lgan muhabbati, islom dini ta’limotiga sodiqligi hamd g‘azallar, munojot va na’tlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Quyidagi matla’ b-n boshlanuvchi g‘azalga diqqat qilsak, N.ning Yaratuvchiga qilgan tavba-tazarrulari va iltijolari orqali shoirning sof dindorligi, samimiy fikr-u tuyg‘ulariga amin bo‘lasiz. M-n:

Yo Rab, o‘lg‘on chog‘da jonim jismi
vayrondin judo,
Ul bo‘lub mundin judo, sen bo‘lmag‘il
andin judo.

Din amrlarini talab darajasida o‘rniga keltirgan N. riyokorlik, soxta dindorlik, ko‘zbo‘yamachilik b-n aslo chiqishmas edi. Ayniqsa, muridlarni zalolatga yetaklaydigan soxta shayxlardan juda nafratlanardi. Shoir bir necha “shayx” radifli g‘azalida odamlarni aldab tuzog‘iga tushiradigan, nafs quli bo‘lgan soxta shayxlarni tanqid qiladi.

N. dinning asosiy masalalaridan bo‘lgan musulmon axloqi qanday bo‘lishini “M.Q.” asarida yaxshi xulqlar va yomon xulqlarga ajratib, tanbehlar berib, hayotiy misollar orqali ko‘rsatib o‘tadi. O‘sha davr jamiyatida dinni muhofaza qiluvchi va rivojlantiruvchi shayxulislom, qozi, qonunshunos mufti, mudarris va boshqa kasb egalarini o‘z kasbiga sodiq, diyonatli, axloqli va insofli bo‘lishga chaqiradi va shu yo‘l b-n dinning aslini saqlab qolishga va taraqqiy etishiga xizmat qiladi. M-n, N. qozi haqida fikr bildirganda, uning din va dunyo ilmini bilishi, xotiri benuqson, shaxsiy manfaatga moyil, ikkiyuzlamachi bo‘lmasligi, oshno-yu begonaga bir xil hukm chiqarmog‘i, o‘ta taqvoli, farosatli, ko‘ngli Tangri kalomi b-n mustahkam va hukmlari Muhammad (s.a.v.) hadislariga muvofiq bo‘lishi kerak, deb biladi. Shar’iy hiylalar xavfidan ko‘ngli pok, agar qozi poraxo‘r bo‘lsa, islom qo‘rg‘oniga raxna soladi. Agar qozining o‘zi pora berib, mansabga o‘tirgan bo‘lsa, albatta, pora olib, shariat qonunini buzadi.

Qozi shariat yo‘lidan bir qadam ham toymasligi, to‘g‘ri yo‘ldan chiqmasligi, shiori to‘g‘rilik va adolat bo‘lmog‘i lozim. Agar oyog‘i to‘g‘ri yo‘ldan toyilsa, u do‘zaxning “Vayl” nomli chuquridan joy oladi. Bu ishni o‘z xohishimcha qilaman desa, yolg‘onchi bo‘lgani bois u Payg‘ambar (s.a.v.) shariati hokimligiga munosib emas.

N. payg‘ambarlarning vorisi bo‘lgan, dinni rivojiga hissa qo‘shadigan, odamlarni yaxshilikka chaqirib, yomonlikdan qaytaradigan olimlarga hamisha e’tiborli va rahnamolik qilgan. Ularning ilm olishi va tarqatishiga qulay sharoitlar yaratib bergan, masjid-madrasalar qurdirgan (qarang: Din). Ammo amalsiz olimlarni ayovsiz tanqid qilgan ularni ustiga yuk ortilgan eshakka o‘xshatgan. Ma’lum bo‘ladiki, N. moddiy imkoniyatlari va ma’naviy salohiyati b-n din rivojiga va sofligiga ulkan hissa qo‘shgan. Odamlardan ham sof dindorlikni, shariat amrlariga amal qilishni, axloq go‘zalligini talab qilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Аҳмад Муҳаммад Турсун, Муҳаммад Шариф Жуман. Ислом дини. – Т., 2013; Алишер Навоий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Комилов Н. Тасаввуф. – Т., 2009; Ҳаққул И. Занжирбанд шер қошида. – Т., 2021; Жабборов Н. Маоний аҳлининг соҳибқирони. – Т., 2021.*

S.R.

DMITRIYEVA Lyudmila Vasilevna – (1924, Lipets – 1997, Sankt-Peterburg) sharqshunos, turkolog. 1951-y.da “G‘arbiy Sibir tatarlarining tili” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan. O‘z sohasida 30 ga yaqin ishlari bor.

D.L.V. Sharqshunoslik instituti Leningrad bo‘limi Qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan V 2471 inv. raqamli N. devonining fotofaksimile matnini so‘zboshi va ko‘rsatkichlar b-n nashr ettirgan (1964). Bu devon 1930-y. Y.E.Bertels tomonidan keltirilgan bo‘lib, XVI asr avvallarida ko‘chirilgani taxmin qilinadi.

G‘azallar 548 ta (1036 bayt), mustazod 1 (7 bayt), muxammas 23 (57,5 bayt), musaddas 8 (28 bayt), tarje’band 10 (97 bayt), masnaviy 1 (144 bayt), qit’a 47 (137 bayt), ruboiy 127 (254 bayt), lug‘z 9 (39 bayt), muammo 50 (52 bayt), tuyuq 8 (16 bayt), fard 51 (51 bayt).

D.L.V. so‘zboshida devonning tarkibi uning badiiy bezaklari, jumladan, devon motiv b-n bevosita bog‘liq bo‘lmagan miniatyuralari (56 a, 87 a, 17 a, 174 a), muqovasi, matndagi nuqsonlar tu-

shib qolgan g‘azallar ba’zi shuningdek, qofiyalar (radif ham) ko‘rsatkichini ilova qiladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011.*

S.G‘.

DOVUD (a.s.) – “Bani Isroil” qavmidan chiqqan payg‘ambarlardan biri. Alloh D. (a.s.)ga payg‘ambarlik b-n birga podshohlikni ham bergan. Uning nomi Qur’onning o‘n olti joyida zikr qilinadi. N. “T.A.H.” asarida yozishicha, D. ibn Iysho (a.s.) Yahudo avlodidan. Aytilishicha, Iysho degan kishining o‘n uch o‘g‘li bo‘lgan. Ularning ichida D. (a.s.) eng kichigi, mayda jussali, ko‘rinishi xunukroq bo‘lib, otasi uni cho‘ponlikka tayinlagan edi. Qo‘y boqib yurganida, D. (a.s.) da ajoyib holatlar yuzaga kelgan. O‘sha paytdagi payg‘ambar Ashmuil (a.s.) Tolut (Shovl)ni Kalbos urushiga jo‘natayotganda, unga “Jolut (Juliyot)ning qatli Iysho avlodidan bir kishining qo‘lida, falon sovut uning bo‘yiga mos keladi”, degan mazmunda vahiy keladi. Ashmuil (a.s.) Iyshoning bolalarini chaqirtirib, o‘n ikki aka-ukaga sovut qalqonni o‘lchatib ko‘radi, ammo hech biriga to‘g‘ri kelmaydi. Iyshoga “yana o‘g‘ling bo‘lsa keltir”, deb talab qiladi. Iysho esa: “bir o‘g‘lim bor, qo‘y boqadi. Ammo unda bu ishni bajarish qobiliyati yo‘q, uni chaqirish foydasiz”, – deydi.

Ashmuil (a.s.) uni so‘rab-surishtirib, borib topadi. O‘shanda D. (a.s.) qo‘ylarini suvdan o‘tkazayotgandi. Suv ko‘p bo‘lganidan qo‘ylarni ikkitadan ko‘tarib olib o‘tardi. Ashmuil (a.s.) bu holni ko‘rgach, bildiki, unda payg‘ambarlik belgilari bor. N.ning ta’kidlashicha, Ashmuil (a.s.) D. (a.s.)dan u b-n sodir bo‘lgan ajoyib va g‘aroyib voqealar haqida so‘raydi. D. (a.s.) ba’zilari haqida gapirib bergan: “Bir tosh Men bilan Horun (a.s.) falon dushmanini halok qilgan”, dedi. Men ul toshni olib, xaltaga soldim. Yana ikki tosh: biri Muso (a.s.), biri Iysho (a.s.) dushmanini o‘ldirganmiz, dedilar. Ularni ham xaltamga soldim. Uchala tosh bitta bo‘ldi”. Ashmuil (a.s.) D. (a.s.)ga nubuvvat va saltanat bashoratin berib, Tolut huzuriga keltiradi. Tolut uni kuyov qilish va mulkidan ajratib berish sharti b-n lashkarlari safida jang qilib, Jolutni o‘ldirishini istaydi. D. (a.s.) “Qodir qudrati bila” o‘sha toshni otib, Jolutni halok etib, bani Isroilni g‘olib qiladi.

Keyinchalik D. (a.s.) Tolutning taxtiga o‘tiradi. Ham payg‘ambarlik, ham shohlikka erishadi. N. uning saltanatini ulug‘ligini ta’riflab, har kecha darborida to‘rt ming kishi uni qo‘riqlar edi, deydi. Qur’onda uning payg‘ambarligi va saltanati haqida: “Ey Dovud, darhaqiqat, biz seni yerda xalifa qildik. Sen kishilar orasida haqiqat bilan hukm qil!” (“Sod” surasi, 26-oyat).

D. (a.s.)ga to‘rt muqaddas kitobdan biri “Zabur” nozil bo‘lgan. Zaburni ahli kitoblar al-Mazomir deb ataydilar. Bu kitob, asosan, diniy she’rlar, Allohni ulug‘laydigan baytlar, savob va iqoblar vasfini o‘z ichiga olgan. Alloh D. (a.s.)ga in’om etgan mo‘jizalaridan biri xush ovozi edi. Qachon “Zabur”ni chiroyli ovoz b-n o‘qisa, vahshiy hayvonlar, parranda-yu darrandalar, jin va insonlar “yig‘ilib, behol bo‘lurlar erdi”.

D. (a.s.)ning mulki va saltanati o‘g‘li Sulaymon (a.s.)ga qoladi. N. “T.M.A.”da D. (a.s.)ning Kaykovus zamonida yashaganini aytgan.

Dovudki, shoh erdiv-u payg‘ambari pok,
Johi qoshida past edi avji aflok.
Jonig‘a ajal urarda tig‘i bebok,
Naf’ etmadi shahlig‘-u nubuvvat xoshok.

N. she’rlarida D. (a.s.)ni tez-tez tilga oladi. Uning xush ovoziga ishora qilib, D. nag‘masi, D. lahni, D. nafasi kabi iboralarni qo‘llaydi. Shoir bu iboralar orqali o‘zining va yo ma’shuqining biror sifatini yorqinroq va jonliroq tarzda “G‘.S.”dagi 225-g‘azalida ham tasvirlashga erishgan.

Sanga Kavsar suyi-yu lahni Dovudiyki,
dayr ichra
Mug‘anniy nag‘masi birla manga jomi
mug‘oni bas.

N. “G‘.S.”dagi 287-g‘azalida quyidagi misralarni keltiradi:

Magar Masih ila Dovudsen nafas bilakim,
Hayotu mavt erur ul alomat, ey hofiz

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Ислом. Энциклопедия. – Т., 2004; Қуръон қиссалари // Пайғамбарлар қиссаси. – Т., 2013; Пайғамбарлартарихи(Исломиятгарихи).–Т., 2013.*

S.R.

DOIY (Taxallusi; to‘liq ismi: Mavlono Shamsiddin Muhammad Doiy, XV asr, Badaxshon – Saraxs) – shoir. N.ning “M.N.”, Xondamirning “Habib us-siyar”, Amin Ahmad Roziyning “Haft iqlim” (“Yetti iqlim”) tazkiralarida u o‘z davrining taniqli shoiri sifatida zikr etiladi. N. “doim Saraxsda Hazrat Shayx Luqmon mozori boshida bo‘lur va goho sotig‘-savdog‘a ham ishtig‘ol ko‘rguzur”, – deb yozadi va ijodidan namuna sifatida quyidagi matla’sini keltiradi:

Justem on dahonro boloyi chohi g‘abg‘ab,
Dar xanda guft on mah onchoki, ki nest matlab.

Tarj.: “Og‘zini baqbaqasi chohi ustidan qidirdim. U oy kulib: “Bu yerdan maqsading hosil bo‘lmaydi”, – deydi. Mana bu ruboiy ham uning qalamiga mansub:

Az motamiyoni mubtaloi vatanam,
V-az do‘koni ganji bayt ul-hazanam.
Di munzaviyi vodiyi g‘am Majnun bud,
Rasvo shudayi anjuman imro‘z manam.

Tarj.: Vatan mubtalolarining motamzadalaridanman. Umrdan esa bayt ul-hazan – g‘am uyi xazinasining do‘koniman. Kecha g‘am vodiysining xilvatnishini Majnun edi, bugun esa anjumanning rasvoyi raddi balosi menman.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988.*

E.O.

DOKTOR Muhammadzoda Siddiq (1945–2022, Eron, Tabriz) – eronlik n.shunos, filolog olim, yozuvchi va tarjimon. U 1970-y. Tabrizda fors adabiyoti bo‘yicha bakalavr diplomini oladi. Eron inqilobidan so‘ng 1982-y. Istanbul universitetida turk adabiyotidan magistrlik, 1984-y. shu universitetda doktorlik darajasini egallaydi. D.M.S. N. asarlari u-n tuzilgan lug‘atlarni nashrga tayyorlagan. 1. “Sangloh” matni ustida o‘n yil ishlab, tahrir, so‘zboshi va ilovalari b-n nashr ettiradi (hijriy, 1399). Mazkur nashrdan oldin Ravshan Xiyoviy “Sangloh”ning ayrim qismlarini Tehronda nashr qilgan edi (1996). D.M.S. kitobga yozilgan so‘zboshida N. asarlarini forsiy tilli xalqlarga ham tanishtirish maqsadida Mirzo Mehdixon Astrobodiy 1758–1760-yy.da mazkur lug‘atni tayyorlagani haqida ma’lumot beradi. 2. M.Siddiq 2017-y. “Maboni ul-lug‘ot”ni tahrir va ilovalar b-n 430 sahifa holida nashr etadi. So‘zboshida olim Mirzo Mehdixon Astrobodiyning “Maboni ul-lug‘ot” asari mustaqil asar ekanligi, lug‘atni ko‘chiruvchilar turkiy-forsiy lug‘at “Sangloh”ning bir qismi, ba’zida muqaddimasi deb bilganlarini aytadi. Olim asar qo‘lyozmalarini qiyoslab, nashr etadi. 3. N. asarlari u-n tuzilgan “Tazyil” nomli lug‘at ham D.M.S. tomonidan nashrga tayyorlanib, 2017-y. (336-bet) chop etilgan. Olimning ma’lumot berishicha, mazkur kitob Mirzo Mehdixon Astrobodiy “Sangloh” lug‘atining bir qismi bo‘lib, unda N. asarlaridagi forscha so‘zlar ma’nosi izohlangan. Erondagi n.shunoslik bo‘yicha maxsus dissertatsiya yoqlagan P.Izzatillayev N. asarlari Eronda Nodirshoh Afshor hukmronligidan boshlab adabiy kechalarda o‘qila boshlangani va kitobxonlar so‘zlar ma’nosini tushunish u-n “Sangloh”dan foydalanishgani, biroq kitob hajman katta bo‘lgani u-n qiyinchiliklar tug‘dirganini aytadi. Shunga ko‘ra lug‘atshunoslar so‘zlikni qisqartirib, soddaroq tilda qayta yozadilar. “Xulosayi Abbosi” nomi b-n atalgan kitob Hakimshoh Muhammad

Xuyi tomonidan Abbos Mirzo taklifi b-n Tabrizda “Sangloh”ni qisqartirish asosida tayyorlanadi. Mazkur asarni D.M.S. Eronda nashr ettiradi. Umuman, N. asarlari u-n tuzilgan lug‘atlar N. ijodini forsiy tilli xalqlarga tanishtirishda vosita vazifasini bajargan. D.M.S. Eronda n.shunoslikka qo‘shgan hissasi u-n 2020-y. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan “Do‘stlik” ordeni b-n mukofotlangan.

Ad.: *Иззатиллаев П. Замонавий Эрон навоийшунослиги: тадқиқ, талқин ва таржима (филологик асарлар мисолида). Филол.фан.б. фалсафа доктори (PhD) дисс. автореферати. – Т., 2022.*

S.O‘., M.X.

DONIYOROV Xudoyberdi (1927–1993) – f.f. d-ri, prof. olim “Alisher Navoiy va o‘zbek adabiy tili”, “Alisher Navoiy – o‘zbek adabiy tilining asoschisi” kitoblarida shoir asarlarini fonetik, leksik, morfologik jihatdan qipchoq shevalari b-n qiyoslagan. Tilning har uchala sathida o‘zaro mushtarakliklar borligini ko‘rsatib bergan. Uning yozishicha, ikkala – N. va qipchoq tilida oltita kelishikning mos kelishi, kishilik olmoshining *men, sen* tarzida qo‘llanishi, jo‘nalish kelishigi ko‘rsatkichining *a* tarzida *jonima, boshima* uchrashi, leksikada *qalpoq, uvuq, vo‘sma, bo‘sag‘a, ulush, terlik, yalov, qilov, tovshanmoq, quroq, cho‘kir, uyruldi, jilov* kabi so‘zlarning ko‘plab uchrashi shoir asarlari tilida boshqa shevalar b-n birga qipchoq shevalari muhim o‘rin tutishini dalillab bergan.

D.X. N. asarlarini o‘zbek, qipchoq shevalari b-n tilning har uch sathida: fonetika, morfologiya va leksikada qiyoslab, uning haqiqiy o‘zbek shoiri ekanini isbotlab bergan

Ad.: *Алишер Навоий ва ўзбек адабий тили – Т., 1972; Алишер Навоий – ўзбек адабий тилининг асосчиси. – Самарқанд, 1985.*

E.U.

“DONO ALISHER” – N. haqidagi xalq rivoyat va hikoyatlaridan tarkib topgan to‘plam. Folklorshunos To‘ra Mirzayev, Malik Murodov, Zubayda Husayinova tomonidan tuzilgan va “Yosh gvardiya” nashriyotida chop etilgan. To‘plamga “Dono Navoiy”, “Mir Alisher va Sulton Husayn”, “Navoiy va uning sevgan qizi”, “Oqilona javob”, “Navoiy bilan mardikor”, “Bir matla’ tarixi” kabi 15 rivoyat kiritilgan. Shuningdek, undan Xondamirning “Makorim ul-axloq” asaridagi (P.Shamsiyev tarjimasi), “Lutfiy va Navoiy”, “Navoiy va Osafiy”, “Qush”, “Chumoli” kabi hikoyatlar ham joy olgan. Rivoyatlarda N.ning oddiy kishilarga munosabati, xalqparvarligi, dono va ziyrakligi, ilm-ma’rifat va adabiyotga mehri hamda homiyligi singari xususiyatlari ifodalangan. Bularni, albatta, tarixiy haqiqatlar deb emas, balki xalq ommasining buyuk shoirga yuksak muhabbati hamda e’tibori sifatida qabul etish lozim bo‘ladi.

Ad.: *Доно Алишер. Алишер Навоий ҳақидаги ривоятлар. Тўпловчи: Жўраев М. – Т., 2016.*

M.X.

“DOR UL-HADIS” VA “DOR USH-SHIFO” – Hirot shahridagi muassasalar. Har ikkisi ham Mahdi-ulyo Milkat og‘a (vafoti 1435) tomonidan qurilgan. Milkat og‘a xoqoni Said Shohrux Mirzoning xotinidir. Shohrux mirzoning Suyurg‘atmish mirzo ismli o‘g‘li Milkat og‘adan tug‘ilgan. Milkat og‘a dastlab sohibqironning ikkinchi o‘g‘li Umarshayx mirzoning xotini bo‘lgan. Umarshayx mirzo 1494-y. jangda halok bo‘lgandan so‘ng Temur Ko‘ragon Milkat og‘ani Shohrux mirzoga nikohlab bergan.

N. Milkat og‘a tomonidan qurilgan D.H. va D.Sh.ga alohida e’tibor b-n qaragan, ularni ta’mirlash, atrofini obod qilishga qaratilgan ishlarni amalga oshirgan. Bu haqda tarixchi Xondamir o‘zining “Xulosat ul-axbor” asarida shunday ma’lumot beradi: “Dor ul-Hadis va Do rush-Shifo Mahdi ulyo Milkat og‘a binolaridan. Hozirda daryodil, oliy janob xoqon hazratlarining yaqin

do‘sti amir Alisherning diqqat-e’tibori tufayli obod bo‘lib turibdi”.

N. bu muassasalarni ta’mirlash, atrofini obod qilish b-n cheklanib qolmagan. Ularda bilimdon, o‘z ishini yaxshi biladigan kishilarning ishlashiga, salohiyatli mutaxassislar b-n ta’minlash masalasiga ham e’tibor qaratgan. “Xulosat ul-axbor”dagi mana bu so‘zlar shundan dalolat beradi: “Mavlono Darvishali tabib... zamon tabiblarining saromadi hisoblanadi. Turli kasalliklarni davolashda maxsus kashfiyotlar qilmoqda. Shuning uchun ham... shu kunlarda Mahdi ulyo Mikat og‘a Dor ush-shifosining mudarrisligi mansabi va bemorlarni muolaja qilish ishlari ul janobga topshirilgan, unga lutfan maosh ham tayinlangan”.

Ad.: *Матлаъйи саъдайн ва магимайи баҳрайн. – T., 2001; Навоий замондошлари хотирасида. – T., 1985.*

Q.E.

“DOR US-SALOM” – tinchlik joyi; u dunyo, jannat ma’nolarini anglatuvchi joy nomi. N. “H.A.”ning ikkinchi maqolatida Islom diniga Islom so‘zidagi har bir harf muayyan ma’noni yuklash b-n ta’rif beradi. Ijodkor olam ahlini ikkiga: najot topuvchilar va halok bo‘luvchilarga ajratadi. Alloh taolo obidi asnom, kufr eliga Azob uyi – Do‘zaxni, Islom esa zumrayi Jannat nasib etishi haqida bayon etar ekan, shu o‘rinda D.S. lafzini qo‘llaydi:

Ul biriga vayl evi bo‘ldi maqom,
Zumrayi islomg‘a dor us-salom.

“F.K.” devonida ham yuqoridagi fikrlarga mushtarak tasvir uchraydi:

Ey xush ulkim, ofiyat kunji manga
erdi maqom,
Surayi vashshamsu vallayl erdi
virdim subh-u shom.

Subh andin xilvatimg‘a nafhayi
ruhul-qudus,
Shom mundin kunji faqrim ravzayi
dor us-salom.

Bu yerda N. ofiyat kunjini maqom etgan solik “Vash-shams”, “Val-Layl” suralarini zikr etar ekan, tonglari ruh ul-qudsning xushbo‘y hidi b-n to‘lishi, shomlari esa faqr uyi ravzayi dor “D.S.”-ga aylanishi xushxabari beriladi, deydi.

Ulug‘ mutafakkir “M.”da esa D.S. istilohini narigi dunyo – boqiy olam ma’nosida istifoda etgan: “*Qulluq duodin so‘ngra arzadosht ulkim, inoyat nishonida hazrat haqoyiq panoh navvarollohu marqadah-u va jaal al-jannata masvoh-u nur hodisa vafotlarin so‘rub erdilar; ...hayyi barhaq vujididin o‘zga jami’ ashyog‘a zahri halok jomin ichardin chora yo‘q va bu fano maqomi baqo dor us-salomi yo‘lida bir manzildurki, “Kun fid-dunya kannaka g‘aribun av obiri sabilin” andin xabar berur”*.

Ad.: *Алишер Навоий. ТАТ. 10 жилдлик. 1-10-жилдлар. – T., 2011; Дор ус-салом. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. IV жилдлик, 1-жилд. – T., 1983.*

S.O‘.

DORO – Sharq she’riyatida, shu jumladan, N. she’rlarida uchraydigan obraz. M-n:

Qachonkim zohir etsang tanzi’ ul-mulk
Sikandarning bo‘lub mag‘lubi Doro.

Quyidagi baytda va’dasiga vafo etib oshiq yoniga kelgan ma’shuqa D.ga tenglashtiriladiki, bu aniq o‘rinda obrazdagi shon-shuhrat, shafqat-marhamat va inoyatpardozlik birinchi o‘ringa chiqadi:

Mug‘anniy, bir navoye tuz,
Navoiy nag‘maye ko‘rguz,
Ayoqchi, tomsa tut to‘qquz,
ki Doroyi jahon keldi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – T., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – T., 2011.*

A.A.

DORO BINNI DOROB – qadimgi Eronning ahamoniylar sulolasiga mansub eng oxirgi podshoh Doro III (mil. av. 336–300). Eronda 200 yildan ko‘proq hukmronlik qilgan. Mil. av. 335-y.da Misrni qayta bo‘ysundirgan. U Iskandar b-n uch marta jang qilgan. Tarixda Iss (mil. av. 333) va Gavgamela (mil. av. 331) deb nomlangan ikki jangda tormor qilinib, Sharqiy Eronga qochgan. O‘z amaldori – Baqtriya satrapi Bess tomonidan o‘ldirilgan.

Sharqda D.B.D. hayoti va faoliyati haqida juda ko‘p afsona va rivoyatlar mavjud. Asrlar davomida tarixiy haqiqat badiiy to‘qimaga aylana borgan. “T.M.A.”da N. uni Eronda hukmronlik qilgan sulolalarning “ikkinchi tabaqa”si – kayoniylarga kiritib, “chun zolim kishi erdi, zulmidin ulug‘ ul ozurda bo‘ldilar”, deb baholaydi. N. shu o‘rinda Rum taxtiga o‘tirgan Iskandarning har yili ming oltin bayzo (tuxum) hajmida xiroj to‘lashdan bosh tortganida, D.B.D.ning g‘azablanib, uning “ustiga cherik tortib” borganini, qo‘shinlar urushga shaylanib, saf tortgan bir vaqtda D.B.D. “zulmidin toriqqan ikki noibi” uni halok etganini yozadi. N. D.B.D.ning o‘limi oldidan Iskandarga qilgan uch vasiyatini (qizi Ravshanakni nikoh qilib olishi, o‘z qotillarini jazolashi va avlodi hayotini saqlab qolishi) ham keltirib, ularni Iskandar ijobatga qabul qilganini ta’kidlaydi. “Va bu dostonni (voqea, tarix manosida – A.A.) faqir, – deb yozadi N., – “Saddi Iskandariy”dakim, “Xamsa”ning beshinchi kitobidur, mashruh (*sharhlab, keng – A.A.*) ado qilibdur?”

D.B.D. “S.I.” dostonida Iskandardan keyin eng yirik obrazlardan biri. “S.I.”da tasvirlanishicha, D.B.D. “yetti kishvar shohi” bo‘lib, barcha mamlakatlar shohlari unga tobelik izhor etib, xiroj to‘lardilar.

Biri Faylaqus erdi ul xayl aro,
Xirojini berguchi bemojaro.

Rum shohi Faylaqus ham hech so‘zsiz (“bemojaro”) yiliga ming oltin tuxum topshirar edi. Otasi o‘rniga taxtga o‘tirgan Iskandarning adolatsiz bojni to‘lashdan bosh tortishi D.B.D.ni g‘azabga keltiradi, uning tabiatidagi barcha salbiylikning ochko‘zlik, mol-u dunyo to‘plashga hirs qo‘yish, bu yo‘lda hatto o‘lka-yurtlarni vayron, xalqni halok etishga tayyorlik, hiyla-nayrang, do‘q-po‘pisa ishlatish, manmanlik va takabburlik, g‘urur va yengiltaklik kabi yaramas xislatlarning to‘la namoyon bo‘lishi turtki bo‘ladi. D.B.D. o‘zining zo‘ravonlik xohishlarining so‘zsiz bajarilishiga, barchaning to‘la itoatkor bo‘lishiga odatlanib qolgan mag‘rur va qattiqqo‘l hukmdor obrazidar. Uning uch yillik xirojini undirib olish va itoatsiz Iskandarni jazolash maqsadida butun dunyoda son-sanoqsiz askarlar to‘plab, urushga otlanishi D.B.D.ning adolatsiz shoh ekanini aniq ko‘rsatish b-n birga shoir zamonidagi bosqinchi urushlarga ham ochiq kinoya etadi. D.B.D. nihoyatda murakkab shaxs obrazi. Dostonning ayrim lavhalarida u tajribali, tadbirkor shoh sifatida namoyon bo‘lsa, ba’zi o‘rinlarda (voqealar rivojiga to‘la mos holda) yengiltabiat, o‘zini tuta olmaydigan, jahl ustida es-hushini yo‘qotib, nohaq ish tutadigan manman shaxs sifatida gavdalanadi. Iskandar huzuridan qaytib, uning so‘zlarini buzmay-bo‘yamay yetkazgan. U haqda rost ijobiy fikr bildirgan elchiga zulm qilishi, jazavasi tutib, zindonga buyurishi bunga yaxshi dalil bo‘la oladi. Doimo aytgani-aytgan, degani-degan bo‘lib kelgan hukmronning bunday paytlardagi ruhiy kayfiyati, ichki iztirob-qiynoqlari, o‘zini idora qila olmay goh talvasa-tahlikaga tushib, goh qahr-u g‘azab otiga minishi N. tomonidan katta badiiy mahorat b-n chizilgan: D.B.D.ning har bir so‘zi, xatti-harakati, iztirob-to‘lg‘anishi mantiqiy va psixologik to‘la asoslangan, makon-zamonidagi voqea-lavhalar ishonarli dalillangan:

Chu fahm etdi Doro aningdek javob,
G‘azab o‘tidin jismig‘a tushti tob.

Yonar o‘tdek o‘ldi qadam to ba farq,
Taharruk ani qildi andoqki barq.

Gahi bo‘ldi davron b-n tundxo‘,
Gahi charxi gardong‘a dedi: “Tufu!”.

Oshib dam-badam iztirobi aning,
Yer-u ko‘kka ta’n-u itobi aning.

Shunday ruhiy jazava holatida D.B.D. Iskandarga qarshi qo‘shin tortishga qaror qiladi, o‘ziga tobe’ mamlakatlardan “adadda biyobon qumidin” ham ortiq askar to‘playdi va Rum tomon yurish boshlaydi. Ammo D.B.D. “zulmidin jonlaridin to‘ygan” ikki noibi “ulusni zulm-u bedodidin qutultirish” niyatida unga suiqasd qilib, og‘ir yarador qiladilar. Natijada qo‘shini ichida sarosima-parokandalik boshlanadi. Shohidan ajralgan sipoh parokanda bo‘lib ketadi. Buni farosat b-n sezgan Iskandar D.B.D. qarorgohiga yetib keladi. Uning boshini tizzalariga olib, bu suiqasdga aloqasi yo‘qligini aytadi. D.B.D. ko‘zini ochib, Iskandar sha’niga ancha maqtovlarni aytib, o‘zining uch vasiyatini izhor qiladi: qotillarni jazolash, qizi Ravshanakka uylanish, yaqinlarini afv etish. Iskandar uning barcha vasiyatlarini bajarishni zimmasiga oladi. Uni shohlarga xos dabdaba b-n dafn etadi. To‘y qilib, qiziga uylanadi. Avlodiga ziyon yetkazmaydi. O‘z valine’matiga xiyonat qilganning oqibati nima bo‘lishini xalq ko‘rib qo‘ysin deb, shohning 2 qotilini avval dorga boshini quyi ostirib, toshbo‘ron qildiradi. Keyin o‘tda yoqib, kulini ko‘kka sovuradi.

Ki gar davr og‘u berdi Dorog‘a bot,
Skandarg‘a ham bermas obi hayot, –

deb D.B.D. haqidagi hikoyasini tugatadi N.

O‘lim oldidan D.B.D. ning Iskandarga murojaatida bu murakkab obrazning yana bir qirrasi namoyon bo‘ladi: endilikda o‘z ojizligi va nohaqligini tan olgan, shirin so‘z va muloyim, hatto Iskandarga xushomad qilishga kirishgan hamda unga yalinib-yolvoruvchi nochor oddiy inson o‘quvchi ko‘z oldida gavdalanadi.

N. yaratgan D.B.D. obrazi ma’lum darajada yakranglikdan holi, ya’ni muallif uni faqat salbiy bo‘yoqlarda tasvirlamaydi. Asarda D.B.D.ning shaxs sifatidagi ijobiy jihatlari ham o‘z aksini topgan va buni ham N. qahramonning o‘z so‘zlari, uning o‘lim oldidan qilgan vasiyati vositasida amalga oshirgan. Jon berayotgan hukmdorning o‘z dushmani b-n yarashishi, undan o‘z odamlarini va qarindoshlarini qatl qilinmasligini so‘rashi va qizi Ravshanak haqidagi so‘zlari D.B.D.ning umrining so‘nggi daqiqalarida o‘z yaqinlari haqida o‘ylagani, ularning taqdiri xususida qayg‘urganini ko‘rsatadiki, bular o‘z navbatida insoniy his-tuyg‘ular mazkur shaxsga ham xos ekanidan dalolat beradi. N. chizgan D.B.D. obrazi orqali o‘z xalqi va boshqa el-u yurtlarni talon-taroj etish evaziga xazinani ko‘paytirishga intilgan, jahongirlik da’vosida bo‘lgan mag‘rur, manman hukmronning halokati tasvirlangan.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. – Т., 2002; Пигулевская Н.В., Якубовский А.Ю., Петрушевский И.П., Строева Л.В., Беленицкий Д.М. История Ирана с древнейших времен до конца 18 века. Изд. Лен., унив., 1958.*

A.A., N.J.



DORN Boris Andreyevich (Dorn, Johannes Albrecht Bernhard, 1805, Germaniya – 1881, Sankt-Peterburg) – sharqshunos, tarixchi, eronshunos, etnograf, semit tillari bo‘yicha mutaxassis, akad. olim. Leypsig universitetida falsafa va ilohiyot fanlari bo‘yicha doktorlik yoqlagan (1825), Sharq tillaridan dars bergan. 1829-y. Rossiyaga kelib, Xarkov universiteti Sharq tillari kafedrasini boshqaradi. 1835-y.dan Sankt-Peterburg Osiyo bo‘limida tarix, geografiya, numizmatika fanlaridan dars beradi. D.B.A. bu yerda samarali mehnat qiladi, akad. unvonini oladi, FA direktori lavozimiga tayinlanadi (1829). Qo‘lyozma kitoblar, tangalarni kataloglashtiradi, tavsiflaydi. Yevropa va Rossiyada birinchi bo‘lib Afg‘oniston pushtu tilini o‘rganishga asos soladi va pushtu tilidagi badiiy ijod namunalaridan iborat antologiya tuzadi, pushtu-ingliz lug‘atini ishlab chiqadi (1847) hamda universitetda pushtu tilidan saboq beradi.

Olim ilmiy faoliyati davomida o‘zidan 140 dan ortiq nashriy asarlar qoldirgan, 1801–1866-yy. davomida Qozonda nashr etilgan 600 ga yaqin kitoblarning ilk katalogini tuzgan. “Sobiq Xanikov, hozirgi Kaysarli xalq kutubxonasiga tegishli Sharq qo‘lyozmalari to‘plami” (1865)da N. asarlari u-n tuzilgan chig‘atoy-forsiy tildagi “Badoye’ al-lug‘at” tavsifida lug‘atning Husayn Boyqaro buyurtmasi b-n tayyorlanganini aytadi, “Badoye’ ul-vasat”, “Kulliyoti Navoiy”, “Devoni Navoiy” qo‘lyozmalarini tavsiflaydi. Yana Sankt-Peterburgdagi Sharq qo‘lyozmalari katalogi (1852) da N.ning 15 dan ortiq qo‘lyozmalarini tavsif qiladi. Sulton Ali Mashhadiy va shogirdi Sulton Muhammad Nur ko‘chirgan qo‘lyozmalarning san’at asari sifatidagi ahamiyatini qayd etadi. U Sankt-Peterburgda saqlanadigan “Ilk devon”ning 1465–1466-yy.da Mashhadiy ko‘chirgan oltin hal b-n hoshiyalangan, sahifalar har yetti rangdan biri b-n ziynatlangan noyob nusxasi, yana “X.”ning 1492–1493-yy.da Husayn Boyqaro u-n Mashhadiy ko‘chirgan, Mavlono Yoriy oltin hal b-n ziynatlagan, Sulton Ali Marviy muqovalagan noyob nusxasi ham D.B.A. tomonidan tavsiflangan. Umuman, ko‘p tilli qomusiy olim o‘z iqtidori, imkoniyatlari doirasida Sankt-Peterburgdagi qo‘lyozmalarni tizimga soldi va ingliz, nemis tilidagi kataloglari b-n ularning mavjudligini ilm ahliga bildirdi. N. asarlarini kataloglashtirishga hissa qo‘shdi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-жилдлар. – Т., 2011; Dorn B. Catalogue des manuscrits et xylographes orientaux de la Bibliothèque impétiale publique de St.-Pétersbourg. – St.-Pétersbourg, 1852; Die vordem Chanykov’sche, jetzt der Kaiserl. öffentlichen Bibliothek zugehörige Sammlung von morgenländischen Handschriften, von B. Dorn // Mélanges asiatiques. Tome V. Livraison 2 et 3. St.-Pétersbourg, 1865; Семенов А.А. Материалы к библиографическому указателю печатных произведений Алишера Навои и литературы о нем. – Т., 1940.*

O.T.

DOR UL-HUFFOZ – hofizlar (Qur’on hofizlari) uyi, qorixona, qiroatxona. Qur’on o‘qiladigan va o‘qitiladigan joy. Ma’lumki, Husayn Boyqaro o‘ziga hovli qurish u-n N.ga Hirot shahri b-n Gozurgoh tog‘i o‘rtasidagi Ko‘shki Marg‘ani degan xushhavo joydan yer ajratadi. N. vayrona bo‘lib yotgan bu ko‘shkni buzib, o‘rniga bir madrasa va masjid soladi. Madrasaning to‘rida “surayi qur’oniy va oyoti furqoniy adosida qiroat gulshanining isaviynafas andalibi xushilhonlari va tajvid ravzasining dovudiynag‘ma foxtai shirinadolari har kun hazrati risolatpanoh mutahhar ruhoniyati uchun bir si pora kalom o‘qub, ul hazrat duosi birla xatm” qilishlari maqsadida bir gumbaz yasab, unga D.H. deb nom beradi. Madrasaning o‘ziga esa kamoli ixlosdan bino bo‘lgani u-n “Ixlosiya” deb nom qo‘yadi. Bu binolarni vaqf qilib berar ekan, “Vaqfiya” asarida ularning ta’minoti haqida, jumladan, shunday yozadi: “Va har yil to‘rt yuz oltun xonaqoh va gumbaz dag‘i madrasa va masjid va Dor ul-Huffoz farshi uchun kiyiz bila bur’yo va yorug‘lug‘ uchun xarj qilg‘ay va har nekim, xonaqoh va matbaxi uchun dasturxon va qozon va ayoq va tabaq va piyola va qoshuq va g‘ayri zolika kerak bo‘lsa, tartib qilib bergay. Va xodim va farroshlar har kecha madrasa masjididagi dolonida, dag‘i Dor ul-Huffozda, dag‘i xonaqohning gunbazida va dahlizlarida sham’ yondurg‘aylar”.

Yana Mashhaddagi Imom Rizo ravzasida D.H. qurib, lojuvard va oltin b-n musulmon va chiniy uslubida go‘zal va hashamatli qilib naqsh bergan. Yoniga zeb-ziynatli va baland ayvon ham qurgan. Faqir, zaif va yetimlarga ovqat tarqatish u-n g‘alvirxona ham qurilgan

Ad.: *Алишер Навоий. Вақфия. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985.*

E.O.

DOR USH-SHIFO – N. tomonidan Hirotda qurilgan shifoxona. Jome’ masjidining janub tomonida did b-n bunyod etilgan, bino hovlisidagi

katta hovuz. D.Sh.da Hirotning mashhur tabiblaridan Qutbiddin Ahmad, mavlono Muhammad Mu'in (umimiy tabib), Mavlono Muhammad Tabib (ko'z kasalligi tabibi), Nizomiddin Abdulhay, mavlono Shamsiddin Giloniy va boshqa tabiblar faoliyat ko'rsatgan. Ular davolash va dori tayyorlash b-n shug'ullanganlar.

Ad.: *Алишер Навоий. Вақфия. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Хондамир. Равзат ус-сафо, 7-жилд. Тошб; Аҳмедов Б. Хондамир. – Т., 1965; Муҳаммадёқуб Воҳидий, Амир Алешер Навоий-Фоний. – Кобул, 1347 ҳ.й.*

Muh.A.

DORUG'A – O'rta asr davlatlarida mavjud bo'lgan mansab. O'sha vaqtlarda barcha shahar va qal'alarga D.lar tayinlangan. D.ning vazifasi unga topshirilgan shahar, qal'a yoki boshqa aholi manzilining qo'riqlanishini, xavfsizligini ta'minlashdan iborat bo'lgan. Bu mansab temuriylar davrida ham mavjud edi. D.lar hukmdorlarning ishonchli kishilari orasidan tayinlangan, xususan, yirik, iqtisodiy, harbiy-strategik ahamiyatga ega shahar va qo'rg'onlar D.ligini shohlar o'zlarining sodiq, yaqin kishilariga topshirganlar. N. davrida Sulton Ahmad mirzo uzoq yil poytaxt Hirotning D.si bo'lib turgan. Bu kishi temuriylardan bo'lib, Sulton Husaynning pochchasi ham edi. D.lar faqat qo'rg'on, shaharlarni qo'riqlab qolmay, uning osoyishtaligi u-n ham mas'ul bo'lganlar, jumladan, o'g'rilik, talonchilik kabilarga qarshi kurashish ham ularning vazifasi doirasiga kirgan. Sulton Ahmad Mirzo (Uning nomi N. asarlarida ko'p tilga olingan, N. uni "M.N."ga ham kiritgan, "S."da maxsus qism bag'ishlagan) o'g'ri, talonchilarga qarshi shafqatsiz kurashgan (o'sha vaqtda ularni "haromiy" deb ataganlar) va N. shu munosabat b-n quyidagi qit'ani yozgan:

Dovari Jamqadr-u Sulton Ahmad
ulkim mulkdin,
Har qayon shoh aylasa azm,
uldurur qoyim maqom,
Chun siyosat birla ko'p to'kti
haromi qonini,
Ihtisob aylab to'kar bu lahza ko'p
qonin harom

Ad.: *Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011; Хондамир. Ҳабиб ус-сияр. – Т., 2011; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985.*

Q.E.

"DOSTONI BAHROM GO'R" – xalq orasida, shuningdek, ayrim kotiblar ko'chirgan nusxalarda N.ning "S.S." dostoni shu nom b-n ham yuritiladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011.*

A.A.

"DOSTONI SHAYX SAN'ON" – N.ning "L.T." dostoni qismida keluvchi hikoyat. An'anaviy syujet asosiga qurilgan bu hikoyat mustaqil asar (doston) sifatida ham qo'lyozma nusxalarda keng tarqalgan. 1962-y.da esa bu hikoyat alohida kitob shaklida ham nashr etilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Шайх Санъон. Нашрга тайёрловчи. Ҳайитметов А. – Т., 1962.*

A.A.

DUNYO – Q.: olam

DURRI ADAN – Sharq mumtoz she'riyatidagi obrazlardan biri. D.A. – Yaman viloyatining Adan shahrida bo'ladigan qimmatbaho marvarid. U shoirlar nazmida turli-tuman ma'nolarda keladi: mahbubaning tishi, ko'z yoshi, bebaho so'z va h.k. M-n, N.ning quyidagi baytida u ko'z yoshini tamsil etib kelyapti:

Ko'zungu zulf-u qoshingdin
injudek bo'ldi yoshim,

Xalq ushbu vajhdin derlar,
ani durri Adan

Ad.: *Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988.*

E.O.

DURRI SAFID – N. “T.M.A.” asarida esga olgan qo‘rg‘on nomi. N. mazkur qo‘rg‘on haqida asarning hukmdor Gushtasbning valiahd o‘g‘li Isfandiyordan toj-u taxtni qizg‘anishi va uni jismonan yo‘q qilishi b-n bog‘liq ziddiyatli voqealar bayonida gapirgan va shunday xabar yozgan: “Va o‘z o‘g‘li Isfandiyornikim, Durri safid qo‘rg‘onida mahbus qilib erdi, chiqorib, mulk va’dasi qilib, sipoh boshlab, Arjosb intiqomig‘a yubordi”.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

B.R.

“DURROJNING YOLG‘ONNI CHIN O‘RNIG‘A AYTURI...” – “H.A.” dostonining 20-maqolatidagi bosh g‘oyani badiiy tasdiqlash u-n keltirilgan hikoyaning boshlanishi. Bu maqolat “Rostliq ta’rifida...” deb boshlanib, unda yolg‘on katta ijtimoiy ofat, yomonlik sifatida qoralangan. Mazkur masal hikoyada esa yolg‘on gapirishga odatlanib qolgan durroj – qirg‘ovul oxir-oqibatda o‘z yolg‘onining qurboni bo‘ladi. U ovchining tuzog‘iga ilinib qolib, yordam so‘rab, ko‘p marta dodlasa ham, unga har qanday qiyin sharoitda yordam ko‘rsatishni va’da qilgan sher uning gapini yolg‘on deb o‘ylab, yordamga bormaydi. Ovchi uning hayoti ipini uzadi:

Maxlasig‘a aylamadi ko‘porot,
Toki anga munqate’ o‘ldi hayot.

N. bu voqeadan o‘zi va zamondoshlari u-n shunday xulosa chiqaradi:

So‘zda, Navoiy, ne desang, chin degil,
Rost navo nag‘mag‘a tahsin degil!

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011.*

Ab.H.

DYAKONOV Igor Mixaylovich (1915, Petrograd. – 1999, Sankt-Peterburg) – sharqshunos, poliolog, yozuvchi, tarjimon, f.f. d-ri, prof. Leningrad (hozirgi Sankt-Peterburg)davlat universitetining tarix-filologiya fakultetida 1932–1937-yy. da tahsil olgan. U idish (yahudiylar bir qismi tili, olmon tiliga yaqin), arab, qadimgi yahudiy, akkad, qadimgi grek, nemis, ingliz tillarini yaxshi bilgan va ushbu tillarda yozilgan durdona asarlarni tarjima qilgan. RF akademiyasiga qarashli Sharqshunoslik institutining Leningrad filialida va Ermitaj davlat muzeyida ishlagan. Olimning dunyoqarashi juda keng bo‘lib, qadimgi dunyo tarixi b-n ham shug‘ullangan. Ossuriya davlatida yer-mulk munosabatlari bo‘yicha nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

D.I.M.ning o‘zi Midiya, Urartu davlatlari b-n bog‘liq xat va hujjat matnlarini va hammualliflikda esa V.A.Livshitse b-n Parfiya davlati hujjatlarini, Y.M.Magaziner b-n vavilon, ossuriy va xet qonunlarini qiyosiy tarzda tadqiq qilgan.

D.I.M.ning n.shunoslikka qo‘shgan hissasi shundaki, u N. hayoti va ijodini puxta o‘rgangan va Korsun A.I., Boldirev N. kabi sharqshunoslar b-n birgalikda Leningrad qamal kunlarida “Alisher Navoiy” nomli she’riy drama yozgan. Ushbu she’riy drama Ikkinchi Jahon urushi yillarida Leningrad qamali kunlarida yozilgani b-n ham biz u-n nihoyatda qimmatlidir.

Ad.: *Дьяконов И. М. Книга воспоминаний. – СПб, 1995.*

S.G‘

DO‘ZAX (ar. – nor, jahannam, jahim, saqar, turkiy tilda tamug‘). Diniy atama sifatida Alloh taolo o‘zining buyruqlarini bajarmagan banda-

lari u-n tayyorlab qo‘ygan dahshatli azob joyi. Qur’oni Karim va hadisi shariflarda D.ning sifati, qandayligi va do‘zaxiylarning qanday azoblanishlari haqida xabarlar berilgan. D.ga tushganlar unda abadiy qoladilar. Ba’zi mo‘minlar esa gunohlari miqdoricha D.da azoblanib, so‘ngra jannatga kiradilar. D. ning yetti darvozasi borligi haqida Alloh taolo “Hijr” surasining 44-oyatida xabar bergan: “Uning yetti darvozasi bo‘lib, har bir darvozaga ularning bir to‘dasi taqsim (tayin) etilgandir”.

1. Hoviya (qattiq qizigan o‘t. Unga munofiqlar, Fir’avnga o‘xshagan ashaddiy kofirlar kiradi); 2. Jahim (o‘ta issiq olov. Unga mushriklar kiradi); 3. Saqar (qattiq kuydirib, jizg‘anak qiluvchi. Unga dindan qaytgan murtadlar kiradi); 4. Lazo (kuchli alanga. Unga shayton – Iblis, uning do‘stlari va majusiylar kiradi). 5. Hutama (sindiruvchi, vayron qiluvchi. Allohning amriga bo‘ysunmagan kofir kimsalar kiradi); 6. Sa’ir (o‘ta qizigan. Unga Allohga shirk keltirgan nasroniylar kiradi); 7. Jahannam (abadiy jazo diyori). Unga gunohi kabiralar qilib, tavbasiz o‘lganlar kiradi.

D.ning yetti darvozasi bor, degani uning yetti tabaqadan iborat ekanini bildiradi. Do‘zaxni qo‘riqlovchi farishta Moliki do‘zax, azoblovchi farishta esa “Zaboniya” deb ataladi. Ahli sunna val-jamoaning e’tiqodiga ko‘ra, D. hozirda yaratib qo‘yilgan bo‘lib, qaysi joydaligi faqat Allohgagina ma’lum va u hech qachon yo‘q bo‘lib ketmaydi.

N. asarlarida, jumladan, lirik chekinishlarida, hamd va munojotlarida do‘zax, jahannam, saqar va tamug‘ so‘zlariga duch kelamiz. Shoir do‘zax (tamug‘)ning azob joyi ekanini ta’kidlash b-n birga, bu so‘z vositasida lirik qahramonning turli holat va qarashlarini ifodalaydi. Ba’zan oshiqning hijron damlari, ayriliq iztiroblari – “D. olovi”, “D. azob”lariga qiyoslanadi.

N. “G‘.S.” devonida 26 marta D. so‘zini rang-barang ma’nolarda qo‘llaydi. U Me’rojga bag‘ishlangan bir she’rida Hazrat Payg‘ambarimiz (s.a.v.)ni zikr qilgani, nomlarini muhabbat b-n eslagani uchungina bu dunyoni yaxshi ko‘rishini, aksincha, dunyo va undagi narsalar D.dagi o‘t kabi azob berishini ta’kidlaydi:

Navoiy xush ko‘rar olamni
oting zikridin, yo‘qsa
Anga do‘zax aro o‘tdekdurur
dunyovu mo fiho.

N. bahordagi yordan ayriliq lahzalarini tasvirlar ekan, qizil gulni – D. oloviga, oq g‘unchalarni – jahannam yaxlariga tashbeh etadi. Yorsiz bahor D.ga aylansa ajab emas, jannatda yor vasli bo‘lmasa, u D.dir, deydi.

Bahor sensiz o‘luptur manga ajab do‘zax,
Qizil gul anda o‘t-u oq shugufalardur yax.

Bahor sensiz agar do‘zax o‘lsa, tong ermas,
Bihisht ichinda liqo bo‘lmasa erur do‘zax.

Jannat ahli yor ko‘yini har lahza orzu qilganidek, do‘zax ahli ham jannatni havas qiladilar:

Jannat ahlig‘a erur har lahza ko‘yung orzu,
Do‘zax ahli uylakim jannatni qilg‘aylar havas.

N.ning “N.M.” asarida so‘fiylarning D. va jannat haqida aytgan g‘aroyib va hikmatli so‘zlari uchraydi. M-n, yetmish to‘rt marta haj qilgan Shayx Ali bin Muvaffaq Bag‘dodiy bir kun afsuslanib, *“kelaman va boraman, ne ko‘ngul muyassar-u ne vaqt. Men xud ne ishtamen?”* deydi. U kechasi tush ko‘rsa, tushida Haq taolo aytadiki: “Ey Muvaffaq o‘g‘li, bir kishinikim sen tilamasang, uyungga tilarmusen? Men ham seni tilamas bo‘lsam erdi, uyumg‘a qo‘ymas erdim. Ul debdurki: “Xudoyo, agar seni Do‘zax qo‘rqunchidin parastish(topinish, sig‘inish) qilur bo‘lsam, mani Do‘zaxga tushur. Va agar behisht umididin parastish qilur bo‘lsam, behishtga tushurma. Agar sening mehring jihatidan parastish qilur bo‘lsam, bir diydor ko‘rsat. O‘zga ne qilsang qil”. Bu voqeada aytilgan D. va jannat haqida gaplar N.ning yuqoridagi baytlari b-n hamohang va ma’nan yaqindir.

Ko‘rib o‘tganimizdek, D. va u b-n bog‘liq ma’nolar silsilasi N.ning e’tiqodiy qarashlari va ishqiy munosabatlarini yoritishda o‘ziga xos ahamiyat kasb qiladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Ислом энциклопедияси. – Т., 2017; Абдулқодир Абдур Раҳим. Эътиқод дурдоналари. (“Бадъул амолий” шарҳи). – Т., 2016.*

S.R.

E

EGAMOVA Shohida (1969) – f.f.n. 2007-y.da “Alisher Navoiy asarlari tilidagi qadimgi turkiy leksika tadqiqi” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan. Ishda shoir asarlarida uchrovchi 1400 ta qadimgi turkiy so‘z lingvostatik, struktur-fonetik va semantik-funksional jihatdan o‘rganilgan.

583 ta tub otlar quyidagi tematik guruhga bo‘lib o‘rganilgan: 1. Qon-qarindoshlik terminlari: *tog‘a-aka*; 2. Tana a’zolari: *bosh, bo‘y, ayaq*. 3. O‘simlik nomlari: *arpa, tol*; 4. Zoologik terminlar: *ot, bug‘ra*; 5. Kiyim-kechak nomlari: *burk-eng*; 6. Oziq-ovqat nomlari: *bol, yag‘*; 7. Maishiy leksika: *igna, qin, tog‘ora*; 8. Foydali qazilma va ma’danlar: *temur, oltun, kumush*; 9. Diniy terminlar: *tamug‘, ug‘an*; 10. Osmon jismlari: *oy, quyosh*: 11. Ijtimoiy-siyosiy terminlar*: bek, boy*; 12. Harbiy terminlar: *o‘q, qalqon va boshqalar*. 116 ta sifat *–liq – luq, –siz, –g‘i –qi* affikslari vositasida yasalgan. Sanoq, tartib, jamlovchi sonlar 44 ta, olmoshlar 33 ta. Qadimgi turkiy so‘zlarning eng ko‘pini fe’l tashkil qiladi. Ular miqdori 557 ta, ulardan 183 tasi tub, 374 tasi yasama. Ishda 1400 ta so‘z semantikasidagi o‘zgarishlarga katta e’tibor berilgan. Ko‘pgina so‘zlar ma’no o‘zgarishlariga uchramagan. Bir qism so‘zlarda ma’no torayishi ro‘y bergan: *osh, bog‘, bek, kishi*. *Bog‘lamoq, yasamoq, ulg‘aymoq* fe’llarida ma’no kengayishi ro‘y bergan.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Ислом энциклопедияси. – Т., 2017; Абдулқодир Абдур Раҳим. Эътиқод дурдоналари. (“Бадъул амолий” шарҳи). – Т., 2016; Эгамова Ш. Алишер Навоий асарлари тилидаги қадимги туркий лексика тадқиқи. – Т., 2007.*

E.U.

“EY KO‘NGUL, KELKIM…” – N.ning yigitlik chog‘ida yozgan va ilk bor “Badoye’ ul-bidoya” devoniga, keyinchalik “G‘.S.” devoniga joylashtirilgan g‘azali. Aruzning ramali musammani mahzuf (Foilotun foilotun foilotun foilun) vaznida. 7 bayt:

Ey ko‘ngul, kelkim, balo bazmida
jomi g‘am tutay,
O‘z qatiq holimg‘a o‘lmastin burun
motam tutay.

Yig‘labon boshimg‘a ohim dudidin
chirmab qaro,
Motamim el so‘ngra tutquncha,
o‘zum bu dam tutay.

Olam ahlig‘a necha qildim vafo,
ko‘rdum jafo,
Ey ko‘ngil, kelgilki, tarki jumlayi
olam tutay.

Emdikim, ishrat surudidin ochilmang,
ey ko‘ngul,
Navha ohangin tuzub, bir dam seni
xurram tutay.

Mastlig‘din o‘zga yo‘q dardim iloji,
soqiyo,
May keturkim, ham ichay, bir lahza
oni ham tutay.

Qo‘yg‘il, ey nosihki, mug‘ dayrida
o‘z ahvolima,
Masti loya’qil yoqam yirtib, surudi
g‘am tutay.

Chun jahon birla jahon ahlig‘a yo‘q
ermish vafo,
Ey Navoiy, men fano sarrishtasin
muhkam tutay.

Ma’lumki, yigitlik fasli – inson umrining eng gullagan, hayotga shodlik, umid b-n nigoh tashlaydigan, uncha-muncha g‘am-qayg‘uni ko‘ngilga yaqin yo‘latmaydigan bir fasl. Yigitlik umr bahori va uni bahor go‘zalliklaridan ajratib bo‘lmasligi u-n ham Mirzo Bobur:

Bahor ayyomidur dag‘i yigitlikning
avonidur,
Ketur, soqiy, sharobi nobkim,
ishrat zamonidur, –

deb yozgan edi. N.ning yuqoridagi g‘azali ham shoirning yigitlik davrida yozilgan. Biroq unda “sharobi nob” emas, “jomi g‘am”, quvonch emas, xayolga kelavermaydigan “motam” xususida so‘z yuritilgan. Aytish kerakki, g‘azalning ruhi og‘ir va qayg‘uli. Oddiy she’rxon nari borsa g‘azalning bir-ikki baytidan so‘ng o‘qishni to‘xtatishi mumkin. Axir, odam “o‘z qatiq holig‘a o‘lmasdan burun” motam tutadimi – yo‘qmi, bundan qat’i nazar, vaqt-soati yetganda, u o‘ladi. Bas, shunday ekan, tiriklikni g‘animat bilmay, uning shodliklaridan dilni yayratmay o‘lim xayollariga berilib, oh-voh qilish nega kerak?

Gap shundaki, N. g‘azalining mazmun-mohiyatini to‘g‘ri anglash va talqin etish u-n, eng avvalo, shoir ko‘zda tutgan irfoniy maqsaddan xabardor bo‘lmoq kerak.

Birinchi baytni o‘qiylik:

Ey ko‘ngul, kelkim, balo bazmida
jomi g‘am tutay,
O‘z qatiq holimg‘a o‘lmastin burun
motam tutay.

Shoir bunda kimga murojaat etayotir? Ko‘ngilga. Chunki ko‘ngil oshiqning suyangan tog‘i, ishongan bog‘i. U o‘z ko‘nglining hukmi ila yashaydi. Uning izmidan nari ketolmaydi. Endi u o‘zi u-n odatiy marosim bo‘lib qolgan “balo bazmida” ko‘ngilga g‘am qadahini tutmoqchi. Zero, uning holi nihoyatda og‘ir. Shu qadar og‘ir va qayg‘uliki, o‘limini kutmasdan o‘zi u-n motam ham tutmoqchi. Bu gaplar yurakka yomon ta’sir o‘tkazishi tabiiy, albatta. Lekin N. zamonidagi she’rxon, xususan, Haq oshiqlari va orif lar qalbida ushbu so‘zlar hasrat emas, shodlik bag‘ishlagan.

“Balo bazmi” qanday bazm, deya o‘zingizga bir savol berib ko‘ring. Daf’atan javob topolmaysiz. Balo so‘zining lug‘aviy ma’nosi – ofat, musibat, falokat, baxtsizlik, azob, g‘ussa demak. Balo kalimasi xuddi shu ma’nolarda ham N. she’rlarida keng ishlatilgan. Shu b-n bir qatorda, ulug‘ shoir she’riyatida balo irfoniy haqiqatlar ifodasi u-n ham xizmat ettirilgan. Demak, matndagi asosiy g‘oyaga asoslanib, bu so‘zning ramziy-majoziy mazmuni hisobga olinmasa, zohiriy ma’no botiniy ma’no u-n bir “parda” ekanligiga diqqat qilinmasa, xato mulohaza va xulosalarga keng yo‘l ochilaveradi. N.ning boshqa bir g‘azali matla’sida o‘qiymiz:

Balo dashti aro Majnun meningdek
ko‘rmamish davron,
Quyundek har zamon bir ko‘rmagan
vodiyda sargardon.

Bu baytdagi “balo dashti” moddiy-jismoniy hayotga daxldor azob-uqubat yoki kulfat mazmunida qabul qilinsa, g‘azal qahramonining ahvol-ruhiyasini to‘g‘ri sharhlash imkoni boy beriladi.

“Balo” – istilohiy mazmunda oshiqlik holining kamoli u-n Haqning sodiq quliga aziyat yetkazishi, og‘ir qiyinchiliklar b-n sinovdan o‘tkazishi, ya’ni ilohiy imtihondir.

Shu bois quldagi “balo” naqadar ko‘p va qudratli bo‘lsa, uning Haqqa yaqinligi shu qadar ortadi, deb o‘ylangan. Zero, “avliyoning libosi, asfiyoning (poklanganlarning) beshigi va

anbiyoning rizqi balodir”. Shu u-n ham qadim kitoblarda, “Haqning shunday do‘stlari bordurki, bir lahza balosiz qolsalar, ne’matdan mahrum bo‘lganlar kabi oh va faryod chekurlar”, deyiladi. Sharq shoirlarining zavq-shavq ila balodan takror-takror bahs yuritishlari, sidq ila Allohdan balo tilashlarining zamini ham ana shunda.

Fuzuliy yozadi:

Yo rab baloyi ishq ila qil oshno meni,
Bir dam baloyi ishqdin qilma judo meni.

“Baloyi ishq ila” oshno kishi u-n nochorlik, bag‘ri choklik, ko‘z yoshi to‘kishlar musibat emas, balki maqsad-manziliga yaqinlashuv hisoblanadi.

Aks holda N. “balo bazmi”dan shavqlanib so‘zlamasdi. Endi ikkinchi misraga kelsak: “O‘z qatiq holimg‘a o‘lmastin burun motam tutay”.

Hazrati payg‘ambar (s.a.v.)ning “O‘lmasdin burun o‘ling!” degan mashhur hadislari bor. Bunda, albatta, jismoniy o‘limga emas, nafsni yengishga da’vat qilingan. Bu “o‘lim” bashariy noqislik va ojizliklardan forig‘ bo‘lgan yangi bir ma’naviy tug‘ilish, ilohiy iroda sohibi bo‘lish mazmuniga ega. Tasavvuf she’riyatida bu haqda nihoyatda keng bahs yuritilgan. Shu ma’noda Ahmad Yassaviy hikmatlaridan birini keltirish mumkin:

Ixlosimni ko‘rub ma’shuq qo‘lum oldi,
Fayz-u futuh to‘la berib yo‘lg‘a soldi.
Bo‘ynum egib moumonlik yakson qildi,
Tufroq bo‘lub o‘lmas burun o‘ldum mano.

Insonning ikkinchi ma’naviy tug‘ilishidan oldingi hayoti, undan keyingi hayotidan butunlay farq qiladi. Shuning u-n u oldin kechgan umridan ko‘p afsuslar chekadi, pushaymonliklarini so‘zlashdan maroqlanadi. Zulmatdan yorug‘likka chiqqan odamga o‘xshab, g‘aflat, nodonlik pardalari b-n burkangan bashariy “men”i b-n go‘yo vidolashadi. O‘zicha unga motam tutadi. Xuddi shu ehtiyoj sababli N. ham:

Yig‘labon boshimg‘a ohim
dudidin chirmab qaro,
Motamim el so‘ngra tutquncha,
o‘zum bu dam tutay, –

degan edi. Bunday holatda fikr-qarashlar, ichki iztirob va azoblar tamoman o‘zgaradi. Inson o‘zini boshqa bir nigohda ko‘rib, oliy bir maqsadlarda siyratini taftishdan o‘tkazadi. Salomatlikni – malomatda ko‘radi. Ruhiy hayotdagi shiddatli evrilish, go‘zallik tuyg‘usining favqulodda o‘tkirlashuvi uni dunyodan yiroqlashtiradi. Deyarli hamma narsa ko‘nglida azob qo‘zg‘aydi. Na o‘zidan, na dunyo va ahli dunyodan qoniqadi. Shuning u-n:

Olam ahlig‘a necha qildim vafo, ko‘rdum jafo,
Ey ko‘ngul, kel-kelki, tarki jumlayi olam tutay, –

deyish nechog‘lik tabiiy bo‘lsa, ishq bahriga cho‘mish, komil bir murshid qo‘lidan “may” – ishq sharobini ichib mastlikka berilish shunchalik zaruriyatga aylanadi. Ammo lahzalarda kechadigan va yuz ochadigan farahli hol oshiq ko‘ngliga zohiriy shodlik bag‘ishlamaydi, aksincha, uni misli ko‘rilmagan g‘am-g‘ussadan tug‘ilajak quvonch ohanglari bag‘riga tortadi:

Emdikim, ishrat surididin ochilmang, ey ko‘ngul,
Navha ohangin tuzub, bir dam seni xurram tutay.

“Mastliqdin o‘zga yo‘q dardim iloji, soqiyo” deydi g‘azal qahramoni. Haqiqatan ham shunday. Uning erkinligi va hurriyati mana shu “mastlik”da. U hushyorlikda bilmaganini shu mastlikda anglagan, “Soqiy” himmati va marhamati ila o‘zining ishq va ma’rifatdan tug‘ilgan va har qancha ibrat olsa arziydigan yangi “Men”ini topgan. Bu – ishq doyalik qilgan shunday bir shaxsiyatki, u tosh otganga gul otadi, qahrga mehr b-n javob bera oladi. Har qanaqa g‘animlikni do‘stlik b-n taslim aylaydi. Jahon va jahon elining vafosizligi boshiga balo bo‘lib yog‘ilganida ham “fano sarrishtasin”, ya’ni vafo maslagin mahkam tutishga doimo sodiq qoladi:

Chun jahon birla jahon ahlig‘a yo‘q ermish vafo,
Ey Navoiy, men fano sarrishtasin muxkam tutay

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Комилов Н. Тасаввуф. – Т., 2009; Ҳаққул И. Занжирбанд шер қошида. – Т., 2021.*

I.H.

“EY NAVOIY, OLAM AHLIDA...” – N. ning “B.V.” devoniga kiritilgan qit’a.

Ey Navoiy, olam ahlida tama’siz yo‘q kishi,
Har kishida bu sifat yo‘qtur, anga bo‘lg‘ay sharaf.
Sen agar tarki tama’ qilsang, ulug‘ ishdur bukim,
Olam ahli borcha bo‘lg‘ay bir taraf, sen bir taraf.

Tama b-n ta’na so‘zlari bir-biriga yaqinday tuyuladi. Buning sababini shunday izohlash mumkin: tamaning katta-kichigi bo‘lmaydi. Birovdan bir xas tilash yoki arzimas manfaatga ko‘z tikish ham tama. Buning orqasida ta’na ham yashirinib yotadi. Bir kun bo‘lmasa, bir kun bu ta’na ehtimolki tosh bo‘lib otilar. Ehtimolki, nayza sifatida ko‘ngilga sanchilar. Yurakni ana o‘shanda pushaymonlik ezadi. Tamaning teskari natijasi doimo og‘uli. Ana shu og‘udan hazar etmoq kerak.

Tama qanday tug‘iladi? Uning doyasi manfaat hirsi. Nafs rag‘bati. Ochko‘zlik. Tama – boylik mansab va shuhratga o‘ch kimsalarning yosumanidir. Ularni tinimsiz avraydi, yo‘ldan ozdiradi. Tama qilishni – insonning o‘z xohishi b-n tubanlashuvi, o‘zi istab odamiylik hissiyotlarini tahqirlashi deb qarash lozim. N.ning “olam ahlida tamasiz” kishi yo‘q, deyishi kimlargadir keskin da’vo bo‘lib tuyulgandir. Lekin N. zamonidan besh yuz yil berida turib – insoniyat psixologiyasi o‘rganilsa, deya taxmin etaylik: “Olam ahli” o‘rtasida haqiqiy ma’nodagi tamasiz zotlar topilarmikin? Balkim topilar. N. davrida ham qanoati ulug‘ kishilarning soni hozirgidan kam bo‘lmagandir. Biroq tamadan butunlay ozod odamlar soni tamaparastlarga nisbatan baribir kam. Doimo noyob bo‘lgan ular. Shuning u-n u qat’iy ravishda: “Ey Navoiy, olam ahlida tama’siz yo‘q kishi”, – degan. Va tamasizlikda oliy sharaf ko‘rganlar:

Har kishida bu sifat yo‘qtur, anga bo‘lg‘ay sharaf.

Shu o‘rinda bir savol qo‘yaylik: “Tarki tama” nega sharaf keltiradi? Negaki, u “ulug‘ ishdur”. Bu ishni N. ulug‘ deb bilgan.

Sen agar tarki tama’ hilsang, ulug‘ ishdur bukim,
Olam ahli barcha bo‘lg‘ay bir taraf, sen bir taraf.

So‘nggi satr qit’aning ilk misrasidagi fikrning to‘g‘riligini ham tasdiqlaydi, ham go‘yo isbotlaydi. Chunonchi: tamagirlar dunyosida tarki tama qilgan kishining paydo bo‘lishi o‘z-o‘zicha katta *voqea.* Shu odamning o‘zi ma’naviy-axloqiy bir qutbni tashkil qiladi, Demak, olam ahlining barchasi – bir taraf, uning yolg‘iz o‘zi – bir taraf. N. quyidagi qit’ada yana tama to‘g‘risida yozadi:

Navoiy, tama’ tuxmin sochma ko‘p,
Riyo ashkidin anga suv ochma ko‘p.

Amal mazra’in ekkali berma yer,
Havovu havas xirmanin yelga ber.

Bu she’rdagi ma’no oldingi qit’aga qaraganda obrazli tarzda ifodalangan. “Tama tuxmi”, “riyo ashki”, “amal mazra’i”, “havovu havas xirmani” – bular istioraviy iboralar bo‘lib, obrazli mohiyatga ega. O‘quvchi “tama’ tuxmi” nima ekanligini aniq tasavvur qila olmaydi. Lekin mushohada yuritsa, bu “tuxm” qabih bir narsaligi, riyo “suvi”siz unib-usmasligini darrov tushunadi. Va “Tama bu, riyokorlik hamdir”, degan xulosaga keladi. Mazra’ – ekinzor. Bobomiz ko‘ngildan amal “mazra’”iga yer bermaslikka chaqirayotirlar. Mana shunda “havovu havas xirmani” ham o‘z-o‘zidan yelga sovurilgan bo‘ladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Бадое- ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик, 3-жилд. – Т., 2011; Комилов Н. Тасаввуф. – Т., 2009; Ҳаққул И. Занжирбанд шер қошида. – Т., 2021; Ҳаққул И. Касби камол ўзни танишдир. – Т., 2021.*

I.H.

“EYKI, ISTARSEN CHOQIN DAF’IGA YASHM” – N.ning “B.V.” devonidan joy olgan qit’a.

Eyki, istarsen choqin daf’ig‘a yashm,
O‘zga tekmakka berib imkong‘a yo‘l,

Bexabar mazlum ohi barqidin,
Kim choqindin dog‘i so‘zonroqdur ul,

Turfaroq bukim, sanga maxsus erur,
Gar sanga joning kerak, ogoh bo‘l.

“Yashm” – muhofaza toshi. Kimki uni qo‘lga kiritsa, o‘zini chaqin ofatidan omon saqlagan bo‘larmish. Qit’adagi fikr u tufayli yashin balosidan qutulishga inonadigan kishiga murojaat b-n boshlanib, ikkinchi bir chaqin xavfidan ogohlantiruvchi ohangda davom ettiriladi. Bu – zulm chekkan, zo‘ravonlikdan bag‘ri sadpora xor-u zorlar oh-u vohining barqi. U “barqi jahonso‘z” – jahonni kuydiruvchi chaqmoqlardan ham so‘zonroq. Mazlum ahvolidan bexabarlik, xorlanganlarga yana xorlik orttirish harakatidagi har qanday kishi mana shu otashga giriftor bo‘ladi. Agar ezuvchilarga jon kerak ekan, bu intimom barqidan ogoh bo‘lishlari kerak! Chunki uni lutfi ehson, to‘g‘rilig-u ezgulik “suyi bilan o‘churmaguncha”, yashm toshi singari biror bir vosita b-n daf’ qilish mumkin emasdir

Ad.: *Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик, 3-жилд. – Т., 2011; Комилов Н. Тасаввуф. – Т., 2009; Ҳаққул И. Занжирбанд шер қошида. – Т., 2021; Ҳаққул И. Касби камол ўзни танишдир. – Т., 2021.*

I.H.

EKMANN Yanosh (János Eckmann, 1905, Vengriya – 1971, Kaliforniya) – vengriyalik turkolog, tilshunos, adabiyotshunos olim. Budapesht universitetida venger tili, semit va turkiy tillar bo‘yicha tahsil olgan. Fan nomzodligidan (1937) so‘ng Turkiyada Ahmed Kafero‘g‘li rahbarligida “Shajarayi tarokima” grammatikasi” bo‘yicha doktorlik ishini olib borgan. Olimning asosiy ilmiy faoliyati Turkiyada kechgan, umrining oxirgi yillarida Los-Anjeles universitetida dars bergan. Turkiy tillar tarixi, xususan, chig‘atoy tili, adabiyoti, Lutfiy, N. ijodi, Markaziy Osiyoda xonliklar davri adiblarining asarlari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Tilshunos olim sifatida o‘rta asr turkiy xalqlar tilini badiiy asarlar misolida o‘rganadi. Gadoiy devoni ilmiy-tanqidiy matni, Mahmud as-Saroiyning “Nahj ul-farodis” asarini nashrga tayyorlagan. Chig‘atoy tili tadqiqiga doir deyarli barcha ilmiy ishlarida N. ijodi asosiy o‘rinda turadi. Mirzo Mehdining “Sangloh” so‘zligi (1947, 1960), N.ning forsiy devoni, turkiy devoni matnlari bo‘yicha maxsus tadqiqotlari e’lon qilingan. Xususan, “Chig‘atoycha” nomli maqolasida shu tildagi adabiyotning rivojlanish davrlari, N. asarlari u-n tuzilgan lug‘atlarning o‘rganilishi va nashrga tayyorlanish tarixi rus, turk va boshqa xorij olimlarining ishlari misolida batafsil yoritilgan.

Ad.: *Hofman H.F., “János Eckmann”. Central Asiatic Journal XVI/2 (1972), pp. 156-60; János Eckmann. Ali Şir Nevai. Bilgi X, 19 (Şubat 1957), 4-4 ve 16; Çağatay dili örneklari: Nevai divanlarindan parçalar. TDED IX (1959); “Nevaî’nin İlk Divanları Üzerine”, TDAY-Belleten 1970, 1971.*

O.T.

ER VA ERAN – turkiy istiloh bo‘lib, er kishi va erlar ma’nosini ifodalaydi. Mumtoz adabiyot namunalarida jins ma’nosidan tashqari mard, qahramon, jasur yo‘lboshchi, fazilatli inson ma’nolarida keladi.

Er – Qur’oni karimda “avliyolloh” deya atalgan Alloh do‘stlarining turkiy nomi. Eran tasavvuf adabiyotida murshidi komil va insoni komil mazmunida qo‘llangan. Eranlarning ko‘ngli ilohiy zavq va ma’rifat xazinasi. Ular vahdat mayidan qongan va ilohiy sir-asrorlardan to‘la voqif zotlardir. Bu obraz N. ijodida alohida mavqega ega. Mutafakkir shoir xoh she’riyatda bo‘lsin,

xoh nasrda insonlarga ibrat, namuna qilib er va eranlarni ko‘rsatadi. N. nazdida, er, eng avvalo, dunyo muhabbatidan voz kechmog‘i, o‘tkinchi hoy-u havaslardan uzilib, parhezkor taqvo sohibi bo‘lmog‘i lozim:

Ey Navoiy, er esang dunyo arusin qil taloq,
Bir yo‘li bo‘lma zabun bu zoli makkor ollida.

N. she’riyatida er kishining to‘g‘riligi, Haq yo‘lida sobitligi alohida e’tirof qilinadi:

Sidq ichra qachonki chiqsa oti erning,
Fosh o‘lsa sadoqatda sifoti erning.

Xushroqki, tavil o‘lsa hayoti erning,
Kim sidqdin – o‘q durur najoti erning.

“N.M.” tazkirasida er haqida shunday deyilgan: “Abu Hafs debdurki, har kim, har vaqtda af’olu ahvolin kitob va sunnat mezoni bila vazn qilib, rost qilmag‘ay, ul kishini er demasbiz”. Er, eranlar adabiyotda nafsi roziya, nafsi mardiya maqomiga yetgan pok zotlar timsoli bo‘lib keladi. Nafsi roziyada mo‘min bo‘sh va foydasiz so‘zlarni tark etadi, ixlos, zikrulloh, zuhd va karomatlar uning sifatiga aylanadi. N. ruhi nafsini mag‘lub eta bilgan tiynati toza, xolis kishini chin er, deb sharaflaydi:

Uldur erkim, salb etib nafsoniyat,
G‘olib etgay zotig‘a ruhoniyat.

Har kishida bu sharaf bizzot erur,
Ul kishi pok-u sharif avqot erur.

Ulug‘ shoir dostonlari, xususan, “L.T.”da erlar tariqi komillik yo‘li sifatida tavsiflangan. Dostonda tariqatga kirish orzusida bo‘lgan, ammo yo‘l mashaqqatidan xavotirga tushib, ortga chekinmoqchi bo‘layotgan qushlarga aynan erlik maqomi ibrat qilib ko‘rsatiladi, aniqrog‘i, nafs-u havo domidan qutula olmayotgan zaif kimsalar ziddi o‘laroq baland shaxsiyat egalari er nomi b-n ulug‘lanadi. Jumladan, Tovus va Tazarv qushining qasr-u gulshanlarda yashash u-n yaratilganliklari, riyozat chekib, yo‘l sari odimlash ularga mashaqqat ekani haqidagi vaj-korsonlariga javoban Hudhudning suvratparastlik va zohiriy oroyish xususidagi fikrlari quyidagicha yoritiladi:

Er kirar er soniga himmat bila,
Er emas faxr aylag‘on ziynat bila.

Erga xulq-u fe’l erur zeb-u jamol,
Yangi zarkash hullasidur eski shol.

“M.Q.”da esa er mana bunday ta’riflangan: “Eranlar xizmatig‘a ulki umrin sarf etar, agarchi umri ketar, ammo jovid umrig‘a etar. O‘zungni bu zumradin yiroq tutma, boshing borsa bu muddaoni unutma. Umr foniydur bevafo, ul boqiy hayot mujibi baqo.

Eranlar xizmatidin chekmagi bosh,
Agar boshingga gardundin yog‘ar tosh

Ki, gar ul tosh bila boshing ushalg‘ay,
Saodat xattidur, gar zaxmi qolg‘ay”.

E. va E. nomi asosan kuchli jins vakillarining adabiyotdagi timsoli bo‘lishi b-n bir qatorda, ba’zan ayollarga ham nisbat beriladiki, bu nomga loyiq ko‘rilganlar sohibma’rifat, ilohiy nasiba egalaridir. Jumladan, “N.M.”ning so‘nggi bobi “Erlar martabasiga etgan orif ayollar zikri” deb nomlangan va unda 35 nafar valiy ayol haqida ma’lumot berilgan.

Umuman olganda, N. ijodida er va eran obrazi mardlik va qahramonlik timsoli bo‘lib, ilohiy ma’rifat sohibi va murshidi komillarni tamsil etadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ.10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ.10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ.10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011;*

Ҳаққул И. Касби камол ўзни танишдир. – Т., 2021; Ҳаққул И. Навоийга қайтиш. 4-китоб. – Т., 2020.

N.J.

ERASLON Kamol (1930–2022, Turkiya) – turkolog, adabiyotshunos, f.f. d-ri, prof. Markaziy Osiyo xalqlari adabiyoti, jumladan, o‘zbek mumtoz adabiyoti va uning Ahmad Yassaviy, Husayn Boyqaro, N. kabi namoyandalari ijodlari bo‘yicha bir qator tadqiqotlarning muallifi. U o‘zbek shoirlari asarlari asosida muhim ilmiy-tanqidiy matnlar tuzgan va ularning nashrlarini amalga oshirgan olimdir. Ilk marta turkiy adabiyot olamida Xoja Ahmad Yassaviyning “Devoni Hikmat”idan sochmalar” nomli tadqiqoti b-n tanilgan olim keyinchalik Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Mavlono Sakkokiy va Husayn Boyqarolarning “Devon”larini so‘zboshi, matn, lug‘at va izohlari b-n hozirlab, ularni keng ilmiy jamoatchilikka tanitdi.

Farididdin Attorning “Tazkirat ul-avliyo”, Abdurahmon Jomiy qalamiga mansub “Nafohat ul-uns” tazkiralarining davomi sifatida maydonga kelgan N.ning “N.M.” asari Islom madaniyati tarixida turkiy xalqlarning tutgan o‘rnini namoyish qiluvchi g‘oyat mumtoz asardir.

E.K.ning bir qator tadqiqotlari N. merosini o‘rganishga bag‘ishlangan. U 1970-y. “Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” nomli tazkirasining matn va til xususiyatlari” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Dastlab muallif yaratgan doktorlik ishining tezislari sifatida 1969-y. Istanbul universiteti bosmaxonasida chop etilgan mazkur tadqiqot 1979-y. alohida holda nashr etilgan.

“N.M.”ning E.K. tomonidan tayyorlangan matni nashrga yozilgan so‘zboshi va izohlardan ma’lum bo‘lishicha, asar yettita ancha mukammal sanalgan qo‘lyozmalari asosida tuzilgan. Ular o‘rtasida hijriy 901-y.da Darvish Muhammad Toqiy va 933-y. Hirotda Ali Hijroniy tomonidan ko‘chirilgan qo‘lyozmalar ko‘p jihatdan tanqidiy matnning mukammalligini ta’minlagan. Bu asarning tanqidiy matni, matn yuzasidan olib borgan tadqiqotlari b-n Sharq xalqlari adabiyoti tarixi, manbashunoslik ilmida muhim vazifani ado etgan olim N. ijodi bo‘yicha ishlarida shoirning turkiy til va turkiy tildagi adabiyotning Islom dunyosidagi o‘ziga xos o‘rni, mavqeyini ko‘rsatib berishga alohida diqqat qiladi.

E.K. N.ning “H.S.H.A.”, “H.P.M.” asarlarini Istanbulda chiqadigan “Turkiyat majmuasi”ning XVI, XIX jildlarida chop ettirgan. Bundan tashqari, u ulug‘ adibning “M.N.”, “M.A.” kabi tazkira va ilmiy risolalarini ham Istanbul va Anqara bosmaxonalarida nashr qildirib, kitobxonlarga taqdim etgan.

N. ijodi yuzasidan katta tadqiqotlar yaratgan olim 1991-y.ning sentyabr oyida O‘zbekistonda N.ning 550 yilligi munosabati b-n o‘tkazilgan ilmiy anjuman va tantanalarda ishtirok etib, ulug‘ bobomizning Turkiya kutubxonalarida saqlanayotgan qo‘lyozmalari haqida axborot berdi.

Ad.: *Eraslan K. Nesâyimü’l-Mahabbe min Şemâyimi’l-Fütüvve, Dokt. tezi, İst. Üniv. 1969; Ali Şîr Nevâyî. Nesâyimü’l-Mahabbe min Şemayimi’l-Fütüvve, Haz. Eraslan K. İst. Üniv. Edeb. Fak. Yay., İstanbul 1979; Ali Şir Nevâyî, Mizânü ‘l-Evzan, Haz. Eraslan K. – Ankara, 1993; Eraslan K., Nevâî,Türk Klasikleri, C.III. – İstanbul, 1986; Eraslan K.. XV. yy Çağatay Adəбиëmı. Büyük Türk Klâsikleri, C.3. – İstanbul 1986; Eraslan K. Nevâyî’nin Hâlât-ı Seyyid Big Risalesi, Türkiyat Mecmuası, XVI (1971). – İstanbul 1971; Eraslan K. Ali Şîr Nevâyî’nin Halât-ı Pehlevan Muhammed Risalesi, Türkiyat Mecmuası, XIX. – İstanbul, 1980; Эраслон К. MECÂLİSÜ’n-NEFÂİS, DİA, cilt: 28; Тоҳир Каҳҳор. Туркиялик навоийшунос. “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”, 1991 й. 27 сентябрь.*

S.O‘.

ERBELO de Molenvil Bartelemi d' (d'Herbelot de Molainville) (1625–1695) – fransuz sharqshunosi, tarjimon. Parij universitetida tahsil olgan, arab, fors tillarini mustaqil o'rgangan. Parij universitetida suryoniy tillari prof. bo'lib ishlagan (1692). E.M.B. sharq tillari va mamlakatlari tarixini mustaqil fan sifatida o'rgangan yevropalik ilk sharqshunosdir. Italiyaga safarida Toskana gersogi Ferdinand II unga sharq qo'lyozmalaridan iborat katta to'plamni sovg'a qiladi. O'rganishlar davomida arab, fors, turkiy, lotin tilida katta hajmdagi (1119 bet) izohli lug'at tuzadi. U mashhur arab, fors va turkiy qo'lyozmalar asosida chop etilgan uch jilddan iborat "Sharq kutubxonasi yoxud universal lug'at" (8600 ta maqola) ensiklopediyasini tuzadi. Kitob olim vafotidan so'ng Antuan Golland tomonidan yakunlanib, nashr etilgan (1697). Fransuz kitobxonini Sharq adabiyoti b-n tanishtirish maqsadida tayyorlangan mazkur kitobda N. ijodi haqida birinchi va uchinchi jildlarda ma'lumot berigan. Ilk marta Yevropaga N.ni olib kirgan E.M.B. Davlatshoh Samarqandiy, Mirxond asarlaridan manba sifatida foydalanadi. Birinchi jilddagi maqolada Alisher ismining ma'nosi, fazilatlari, ijtimoiy mavqeyi, el-yurt, saroydagi obro'si, fazilatlari yoritiladi, buyuk ijodkor ekanligi e'tirof etiladi. N. tashkil etgan va keyinchalik Xondamirga meros sifatida qoldirilgan kutubxona haqida ma'lumot beradi. Kitobning uchinchi jildida N.ning Amir Temur avlodi bo'lmish Husayn Boyqaro saroyida faoliyat ko'rsatgani, fors va turkiy she'riyatda kamolot cho'qqisiga yetgani ta'riflanadi. "Xamsa" dostonlari va "X.M."dagi to'rt devon haqida ma'lumot beriladi. Ensiklopediya XIX asrga qadar Yevropada Sharq adabiyotini tanishtirgan, xususan, N. haqida ma'lumot beruvchi asosiy manba bo'lib xizmat qilgan.

Ad.: *B. d'Herbelot, Bibliothèque orientale, ou dictionnaire universel contenant tout ce qui fait connoître les Peuples de l'Orient, t. III, La Haye, J. Neaulme & N. Van Daalen, 1777;. Икромова С. Алишер Навоий асарлари француз тилида // Шарқ юлдузи. 1985. № 8; Сотимов У. Исследование жизни и творчества Алишера Навои в западноевропейском востоковедении. Автореферат дисс. по филол. – Москва, 1998.*

O.T.

ERGASHEV Qodirjon Otajonovich – n.shunos. F.f. d-ri, dotsent. E.Q.O. 1956-yili 13-sentyabrda Farg'ona viloyatining Beshariq tumani Zarqaynar qishlog'ida tug'ildi. 1978-y.da Qo'qon Davlat pedagogika institutini tamomlagach, 1991-y.gacha Beshariq tumanida o'qituvchi bo'lib faoliyat yuritgan.

1991-y.da O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutiga ishga qabul qilingan va ayni paytda mazkur ilm dargohida katta ilmiy xodim lavozimida faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

E.Q.O.ning ilmiy faoliyati mavzulari rangbarang. Adabiyotshunos o'zbek va xorij adabiyotshunosligini puxta o'rganganligi bois har qanday mavzuda atroflicha tadqiqotlar yarata oladi. Mumtoz adabiyotning bir necha namoyandalari haqidagi maqolalari ilmda yangilik sifatida qabul qilingan. Olimning ilmiy izlanishlarida bobur shunoslik va n.shunoslik alohida mavqega ega. Ko'pgina izlanish va qiziqishlarining natijasi o'laroq, 1996 y.da "O'zbek nasrida insho (Navoiy "Munshaot" misolida)" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. Ma'lumki, n.shunoslikda kam o'rganilgan maktublar shoir shaxsiyati va ijodiy maslagini belgilovchi janrlardan biridir. E.Q.O. "M." asari tadqiqi misolida N. hayoti, ijodi, siyosiy faoliyatini uyg'unlikda ochib bera oldi. Dissertatsiyadagi ma'lumotlar qayta to'ldirilib, "O'zbek nasrida insho" nomli monografiyasi nashr etildi (2011).

E.Q.O.ning muvaffaqiyatlaridan biri rus n. shunosligidagi tadqiqotlar b-n tanishligidadir.

Ko‘plab maqollarining rus tilida nashr etilishi dunyo n.shunosligini boyitganligi b-n qimmatli. Olim o‘z maqolalari bilan yangi masalalarni yoritishga, n.shunoslikdagi kemtikliklarni to‘ldirishga xizmat qiladi. E.Q.O.ning “Некоторые аспекты государственной деятелности Алишера Навои” (“Alisher Navoiyning davlat arbobi sifatidagi faoliyatining ayrim aspektlari”) (2009) nomli risolasi buning yorqin dalilidir.

E.Q.O.ning izlanishlarining asosiy qismi N. ning nasriy asarlari b-n aloqador. N.shunoslikda, ayniqsa, nasrdagi mahorati, betakror uslubi kam o‘rganilgan edi. E.Q.O. uzoq yillar N. nasri yuzasidan izlanishlar olib bordi. Bir necha maqolalrida ushbu masala borasida yangi mulohazalarni keng ommaga taqdim etdi. 2022-y.da esa “Alisher Navoiyning nasriy uslubi masalalari” mavzuida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. Va shu nom b-n monografiyasi (2022) chop etildi. Kitobda ilk bor ijodiy ong va uslub masalari ilmiy-nazariy dalillangan. Ijodkor uslubining shakllanishida davr b-n bog‘liq omillar, an’ana va o‘ziga xoslikka e’tibor qaratilgan. N.ning turkiy adabiyotdagina emas, balki dunyo adabiyotidagi buyuk mavqe-martabasiga nasriy asarlari asosida oydinlik kiritgan. E.Q.O. ilk bor N.nasriy asarlaridagi simvollardan bahs yuritadi va ularning tasnifini amalga oshiradi. Tarixiy haqiqatlarning diniy hamda afsonaviy romantik talqinda berilishi ham navoiyshunoslik yutuqlaridandir.

E.Q.O.ning ilmiy faoliyati matnshunoslik b-n ham aloqador. Jumladan, Alisher Navoiy Mukammal asarlar to‘plamining bir necha jildini nashrga tayyorlashda ishtirok etgan. “Navoiy ensiklopediyasi”ning asosiy mualliflaridan biridir.

E.Q.O. N. asarlarini rus tiliga tarjima qilishga ham o‘z hissasini qo‘shgan. U N.ning “F.Sh.” dostonidagi oldingi ruscha nashrlarga kirmagan 14 ta bobning nasriy tarjimasini amalga oshirgan. Bu nasriy tarjima asosida rus tilida “F.Sh”-ning umumlashtirilgan to‘liq nashri yaratildi. Shuningdek, E.Q.O. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi loyihasi doirasida N.ning 100 ta g‘azalini rus tiliga nasriy tarjima qilgan. Mazkur tarjimalar “Jahon adabiyoti” jurnalida e’lon qilindi.

***Ad**: Эргашев К. Некоторые аспекты государственной деятелности Алишера Навои. – Т., 2009; Эргашев Қ. Ўзбек насрида иншо. – Т., 2011; Эргашев Қ. Навоийнинг насрий услуби масалалари. – Т., 2022.*

Z.R.

ERKINOV Sodirxon (1930, Farg‘ona – 2009, Toshkent) adabiyotshunos olim, f.f. d-ri, prof. E.S. “Lutfiy va uning “Gul va Navro‘z” dostoni” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan (1958). E.S. 1959, 1960, 1965, 1988-yy.da Mavlono Lutfiy asarlarini o‘zbek, rus tillarida nashrga ettirdi, 1965-y.da uning “Lutfiy” monografiyasi bosilib chiqdi. E.S. besh jildlik “O‘zbek adabiyoti tarixi” mualliflaridan biri. Rus tilidagi ikki jildlik o‘zbek adabiyoti tarixi tadqiqoti u-n mualliflar jamoasi b-n birgalikda Abu Rayhon Beruniy nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan. E.S. Hamza Hakimzoda Niyoziy (to‘rt jildlik), Hamid Olimjon “Mukammal asarlar to‘plami” (o‘n jildlik) akademik nashrlarida ham noshir, ham muharrir, ham tahrir a’zosi sifatida faol qatnashgan.

Olim ko‘p yillar davomida Sharqda “Farhod va Shirin” qissasining shakllanishi, uning o‘zbek, tojik, ozarbayjon, hind, turk va boshqa xalqlar adabiyotida ishlanishi masalasi ustida jiddiy ilmiy ish olib bordi va “Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni va uni qiyosiy o‘rganishning ba’zi masalalari” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi (1974). Uning bu mavzudagi ilmiy ishini V.Zohidov, I.Sultonov, A.Qayumov, A.Hayitmetov kabi yirik mutaxassislar, shuningdek, ozarbayjonlik mashhur olim, prof. H.Arasli yuqori baholagan.

E.S.ning ilmiy faoliyatida o‘zbek adabiyotining Sharq xalqlari adabiyotlari b-n aloqalarini tadqiq etish muhim yo‘nalishni tashkil qiladi. Olim Sharqda mashhur “Xamsa”chilik an’anasining N.gacha bo‘lgan tarixi, N. “X.”si an’analarining Sharq adabiyotida davom ettirilishi masalalari bo‘yicha tizimli shug‘ullanib keldi.

E.S.ning “Asrlar osha mushoira”, “Sharq adabiyotida Farhod qissasi” kitoblari ham masalalarning qo‘yilishi va ularni hal etishdagi ilmiy tahlilning o‘ziga xosligi, asoslanganligi b-n ajralib turadi.

Ad.: *Эркинов С. Навоий “Фарҳод ва Ширин”и ва унинг қиёсий таҳлили. – T., 1971; Эркинов С. Асрлар оша мушоира. – T., 1977; Эркинов С. Шарқ адабиётида Фарҳод қиссаси. – T., 1985.*

B.R.

ERKINOV Aftondil (1964-y., Toshkent) – f.f.d-ri. (2000-y.), dotsent (1997-y.). E.A. 2006-y.dan markazi Angliyaning Kembridj shahrida joylashgan islom davri qo‘lyozmalari xalqaro ilmiy tashkiloti (TIMA), 2015-y.dan AQShning forsiy tillar jamiyatini o‘rganish ilmiy assotsiatsiyasi (ASPS) hamda 2017-y.dan AQShning Markaziy Osiyo tadqiqotlari ilmiy jamiyati (CESS) a’zosi. E.A. Germaniya, Fransiya, Turkiya, Eron, Avstriya, Rossiya va Yaponiya mamlakatlarida malaka oshirishda bo‘lgan va qo‘lyozmalar xazinalari bilan tanishgan.

1990-y. “Alisher Navoyining peyzaj yaratish mahorati (“Saddi Iskandariy” dostoni misolida)” mavzusida nomzodlik, 1998-y. esa “Alisher Navoiy “Xamsa”si talqinining XV–XX asr manbalari” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan. U o‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari, xususan, N. asarlari qo‘lyozma manbalar ustida ilmiy tadqiqotlar o‘tkazgan.

E.A. 2007-y. o‘z vaqtida Miyon Buzruk Solihov tilga olgan, Qo‘qon xoni Umarxon tomonidan usmonli turklar sultoniga yuborilgan va katta qismini N.ning “X.M.”si egallagan she’rlar majmuasi – “Muhabbatnoma” qo‘lyozmasining Istanbul universitetida mavjudligini aniqlab, u haqidagi dastlabki maqolasini e’lon etgan.

E.A. N.ning hayotligi davrida tuzilgan yoki ko‘chirilgan bir necha qo‘lyozmalarini aniqlab, xususan, 2010-y. “Ilk devon”dan keyin, ixlosmandlar tomonidan 1471-y. Oqquyunlilar saltanatida tartib berilgan N. devoni qo‘lyozmasini fanga olib kirgan. Mazkur devon qo‘lyozmasi Misrning “Dor ul-kutub” kutubxonasida saqlanib, u E.A. tomonidan n.shunoslikka “Oqquyunli muxlislar devoni” degan shartli nom bilan kiritilgan. 2015-y. mazkur devon qo‘lyozmasi faksimilesini ingliz, o‘zbek va rus tillaridagi so‘zboshi bilan Tokioda nashr qildirgan. 2018-y. “B.B.”ning N. hayotligida ko‘chirilgan ikki nusxasini Tehron va Istanbul kutubxonalaridan aniqlab, n.shunoslikka ma’lum qilgan. Ular E.A. tomonidan n.shunoslikka “Badoye’ ul-bidoya”-ning Tehron nusxasi” (888/1483-y. ko‘chirilgan) va “Badoye’ ul-bidoya”ning Istanbul nusxasi” (889/1484–1485-y. ko‘chirilgan) nomlari bilan kiritilgan. 2019-yili Oqqo‘yunlilar hukmdori Sulton Ya’qub (1478–1490) buyurtmasi bo‘yicha tuzilgan, N. she’rlaridan saylab olib tuzilgan va 885/1480–81-y. ko‘chirilgan kichik majmuani aniqlagan. Mazkur to‘plam shartli tarzda “Sulton Ya’qub saylanmasi” degan nom ostida navoiyshunoslikka olib kirilgan. E.A. 2022-y. N.ning umri so‘ngida (905/1499–1500) Sultonali Mashhadiy tomonidan Hirotda ko‘chirilgan devoni qo‘lyozmasi tarkibini aniqlagan.

E.A. 1999–2023-yy.da N. ijodi, asarlarining qo‘lyozma nusxalari yuzasida AQSh, Yaponiya, Angliya, Fransiya, Germaniya, Rossiya, Eron va Turkiyadagi ilmiy markaz va universitetlarda tadqiqotlar olib borgan, malaka oshirgan hamda xorijdagi o‘ttizdan ortiq xalqaro konferensiyalarda ma’ruzalar qilgan. G‘arbda ingliz, fransuz, nemis tillarida o‘ttizdan ortiq maqolalari nashr qilingan.

E.A. N. ijodi bo‘yicha yozgan ayrim maqolalarini to‘plab, “Navoiyni anglash sari” kitobini nashr qilgan (2021).

Ad.: *Эркинов А. Навоий – пейзаж устаси. – T., 1988; Erkinov A. (ed.). ‘Alī Shīr Navā’ī. Dīvān of the Aq qoyunlu Admirers (1471). – Tokyo, 2015; Эркинов А. Алишер Навоий “Хамса”си талқини манбалари (XV–XX аср боши). – T., 2018; Алишер Навоий. Оққуюнли мухлислар девони (1471 йил): табдил ва факсимил матн. Нашрга тайёрловчилар: А.Эркинов, Р.Жабборов. – T., 2021; Erkinov A. Navoiyni anglash sari. – Ankara: Akçağ Yayınevi, 2021.*

B.R.

ERON – Q.: Ajam.

“ERUR ORIFQA GANJI FAYZ YETSA...” – N.ning “N.Sh.” devonidan o‘rin olgan qit’a.

Erur orifqa ganji fayz yetsa,
Ishi dam urmayin ani yoshurmoq.
Quyosh aksi tushub daryo ichinda,
Ne mumkindur aning suvin toshurmoq.

Sharq mamlakatlaridan birida shunday voqea sodir bo‘lgan ekan. Ikki do‘st ketayotib, masjid yonida tanho o‘tirgan ko‘rni ko‘rib qolishibdi. “Bizning yurtimizdagi eng donishmand zot mana shu kishi”, debdi biri ikkinchisiga. Ko‘rning yoniga borishib, u b-n bir muddat gaplashishibdi. So‘z orasida ko‘rni ta’riflagan kishi undan so‘rabdi: “Savolim uchun uzr. Siz qachondan buyon ko‘rmaydigan bo‘lgansiz?” “Men botil tug‘ilganman”, – o‘z-o‘ziga so‘zlaganday shivirlabdi ko‘r. “Siz donishmandlikning qanaqa yo‘lini tanlagansiz?” – so‘rabdi haligi odam yana. “Men munajjimman, – debdi ko‘r, – quyosh, oy va yulduzlarni kuzataman, shunga qarab fikr yuritaman”.

Haqiqiy orif odam mana shu munajjimga maslakdosh kishidur. U ham dunyoga yurak ko‘zi b-n qaraydi. U ham inson ruhi va dili favqulodda yorug‘, ya’ni quyoshli bo‘lmog‘ini istaydi. Shuning u-n orif oliy haqiqatni tanuvchidir. Ulug‘ turk shoiri Yunus Emro:

Orif anga deyarlar, ul kon bo‘lur,
Ma’rifat olaminda bir ummon bo‘lur...

Haq deyajak nafasi Haqdin kelar,
So‘ylayajak ko‘zlari Qur’on bo‘lur, –

degan. N. ta’kidlashlaricha, orif haqiqat xazinasidan qancha kun fayz topsa, ko‘ngli nechog‘lik ma’naviy ganjlar b-n boyisa ham uning vazifasi buni oshkor qilmasdan pinhon tutmoqdir. Haqdan etishgan fayz va ma’rifat boyligini atayin yashirmoq oriflikmi? Yo‘q. Bunda hech qanaqa atayinlik bo‘lmasligi kerak. Chunki orif degan bamisoli daryo. Har kuni daryo yuziga quyoshning olov nurlari to‘kiladi, deylik. Ammo nurli haroratdan daryo ko‘pirib, suvini toshishi mumkinmi? N. qit’aning navbatdagi baytida:

Ko‘yosh aksi to‘shib daryo ichinda
Ne mumkindur aning suvin toshurmoq, –

der ekanlar, orifni ana shunday ko‘pirmas daryoga qiyoslaydilar. Ilm egallaganga olim, ma’rifat sohibiga orif deyilagan. Olim aql, mantiq va dalilga asoslansa, orif ko‘ngil, zavq va holga tayangan. Tasavvuf ahli olimnikiga nisbatan orifning xislati, ma’naviy kuch-quvvati va imtiyozlariga yuqori baho berishgan. Muhyiddin Ibn Arabiyga ko‘ra, “Orif mamlakatning butun yukini yelkasiga olishga qodir. U barcha masalalarning yashirin jihatlarini yuzaga chiqarishni istar. Orif tushunchalarini o‘zining shaxsiga muvofiq tarzda o‘rtaga tashlaydi”.

Ad.:*Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Комилов Н. Тасаввуф. – Т., 2009; Ҳаққул И. Занжирбанд шер қошида. – Т., 2021; Ҳаққул И. Касби камол ўзни танишдир. – Т., 2021.*

I.H.

“ERUR SO‘Z MULKINING KISH-VARISTONI” – Husayn Boyqaro ruboiysining birinchi misrasi. N.ning so‘z mulkini zabt etishdagi mahoratini Husayn Boyqaro shunday ta’riflaydi:

Erur so‘z mulkining kishvaristoni,
Qayu kishvariston, xisravnishoni
Dema, xisravnishonkim, qahramoni,
Erur gar chin desang sohibqironi.

Bag‘ishlov xarakteridagi mazkur ruboiyni shoh va shoir Husayn Boyqaro do‘sti N.ga nisbatan keng fe’llik, bag‘rikenglik, o‘ta samimiy va saxiylik, chin yurak, nozik did va mahorat b-n yozgan, deyishimiz mumkin. Qarangki, dunyo, olam, jahon, mamlakat boshqaruvi kabi ma’nola-

rini o‘zida ifodalagan kishvaristoni, xisravnishoni, qahramoni, sohibqironi so‘zlaridan qofiyalar yaratgan, bu betakror qofiyalari orqali u N.ning nafaqat ijodini, balki shaxsini ham yuksak baholagan. Kishvaristoni, xisravnishoni so‘zlarini takrorlash b-n esa Husayn Boyqaro so‘z o‘yini qilib, birinchidan, amalda o‘zini Xuroson kishvar (mamlakat)ining xisrav (hukmdori)i ekanligiga ishora qilsa, ikkinchidan, N.ni ramziy ma’noda, ya’ni so‘z mulkining podshohigina emas, balki o‘zidan ham baxtiyor, baxtga erishgan jahongir, umuman, so‘z kishvarining zo‘r podshohi, sohibqironi ekanligiga ishoralar qilgan. Shuni alohida ta’kidlash o‘rinliki, bir tomondan, Husayn Boyqaro N.ga bag‘ishlangan mazkur bag‘ishlov xarakteridagi she’rida takror, tanosib, mubolag‘a, talmeh kabi badiiy san’atlardan ham maqsadli foydalangan hamda o‘zning poetik maqsadiga erishgan. Ikkinchidan, Husayn Boyqaro ushbu she’riga ta’lim tarbiyaviy, didaktik tus bera olgan. Bu b-n o‘z davri va keyingi davr ijodkorlariga qarata ham, bir biringizning ijodingizga befarq bo‘lmang! Qadrlang! Tabriklang! So‘z, qalam, davot kitobingizdan ilining, hadyalar bering! Niyatda, so‘zda, amalda bir-biringizni ziyoratlar qiling! Shunda, siz, qalam ahli o‘zaro sog‘lom ijodiy muhitni yarata olasiz, degandek bo‘ladi. Uchinchidan, u o‘z she’rida hukmdorlarga xos so‘zi, qalami, hukmi va farmonining kuchi, zarbi hamda xayrli oqibatini mutafakkir do‘sti, so‘z mulkining sultoni N. misolida tasvirlab, ko‘rsatib bera olgan.

Ad.: *Ҳусайн Бойқаро. Рисола. Девон. – T., 1995.*

B.R.

ESHONQULOV Husniddin – (1972, Buxoro). Buxoro Davlat universiteti O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi mudiri, f.f. d-ri, dotsent. 1990–1995-yy.da Buxoro Davlat universiteti O‘zbek filologiyasida tahsil olib, o‘qishni imtiyozli diplom b-n tugatgan. 1992–1994-yy.da Turkiya Jumhuriyatining Saljuq universiteti turk tili va adabiyoti bo‘limiga o‘qishga yuborilgan. 1995-y.dan buyon BuxDUda ilmiy-pedagogik faoliyatini davom ettirmoqda.

1999-y.ning 22-dekabrida “Alisher Navoiy she’riyatida samoviy timsollar (“Badoye’ ul-bidoya”, “Navodir un-nihoya” devonlari misolida)” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasi, 2020-y.da “Alisher Navoiy she’riyatidagi ishq poetikasining qiyosiy-tipologik tahlili” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

Olimning “Taxt-u tojin bersa bu davlatni topmas podshoh”, “Dam bu damdur – tut g‘animat”, “Foniy bo‘lmoq – boqiy davlat”, “Pok-u beg‘ash ishq mohiyati”, “Faqr ko‘yida taalluq kufri mahz ermish”, “G‘arq etar bahri fano g‘am zavraqin”, “Mayli la’ldan bahramandlik saodati”, “Sanamlar husnidin maqsud yor o‘lmish Navoiyga”, “Olam ahli malomatiga bois bo‘lguvchi sir”, “Kofiri ishq bo‘lmoq ermish – fosh qilmoq sirri ishq”, “Ishq o‘ti kulidin oyinafom bo‘lsin yurak” nomli ilmiy izlarishlarida N.ning oshiqona g‘azaliyoti tahlil etiladi, ulardagi obraz va badiiy timsollarning irfoniy mohiyati xususida fikr yuritiladi.

E.H. ustozi, prof. R.J.Vohidov b-n ham mualliflikda “O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi” qo‘llanmasi chop etilgan. 2006-y.dan buyon mamlakatimizdagi O‘zbek filologiyasi fakultetlarida o‘qitilmoqda. Ushbu o‘quv qo‘llanmaning salmoqli qismi, 191 sahifasi (247 – 438-betlar) N.ning hayoti va ijodi, uning o‘rganilishi tarixi, shoir devonlarining tartib berilishi, ularning janriy xususiyatlari, g‘azaliyotining shakliy, g‘oyaviy xususiyati, yetakchi qahramonlari, badiiyati, kichik she’riy asarlari, qasidalari, “X.”si va “L.T.” dostoni hamda ilmiy, adabiy mohiyat kasb etuvchi nasriy asarlariga bag‘ishlangan.

S.O‘.

E’NOT (ar. − mashaqqatga qo‘ymoq) − qofiyaning jarangdorligini ta’minlash maqsadida undan oldin takrorlanadigan tovushlarni keltirishga asoslangan lafziy san’at. Bunda shoir qofiyadan oldin takrorlanishi shart bo‘lmagan tovushlarni qo‘llaydi.

M-n:

Ko‘ngluma tig‘ urg‘ach, ohimdin
huvaydo bo‘ldi dud,
Shu’laning ustiga chun qo‘yding su −
paydo bo‘ldi dud.

Bu yerda raviy “o” bo‘lsa, uning oldida “d”, hatto “y” tovushlari takrorlanyapti va o‘ziga xos jarangdorlikni hosil qilyapti. Holbuki, ushbu so‘zlarga g‘azalning keyingi baytlarida ko‘rganimizdek, *soro, oshkoro*, *sumanso, xazro, zulmatoso, charxpaymo, vahshatafzo* so‘zlarini ham qofiya qilingan, lekin ular “huvaydo − paydo” kabi jaranglamaydi.

G‘ariblig‘da, demankim, g‘am-u malolati bor –
Ki, sendin ayru ko‘ngulning g‘arib holati bor.

Baytda qofiya bo‘lib kelgan “malolat” va ”holat” so‘zlaridagi “t” harfi raviy, “l” esa E.dir. E. iltizom deb ham yuritiladi. Iltizom bir narsani o‘z uhdasiga olish demakdir. Atoulloh Husayniyning Rashididdin Vatvot tilidan keltirishicha, “shoir so‘zni bezash uchun vojib bo‘lmag‘an va so‘z onsiz ham durust to‘liq bo‘lg‘an, bir narsani takalluf qilur andoqkim, saj’ oxirida yoki bayt oxirida raviy yoki ridf harflaridin burun bir harfni iltizom qilurlarkim, agar muni qilmasalar ham ziyoni yo‘qtur”.

N. imkoni topilganda E.li qofiyalardan mahorat b-n foydalanadi, lekin hamisha ham bunga harakat qilmaydi − shoir asarlarida E.siz qofiyalarning ko‘pligi shundan dalolat beradi.

Ad.: *Шамс Қайс Розий. Ал-мўъжам. – Д., 1991; Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға // “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2002. № 4; Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъус-санойиъ (А. Рустамов тарж.). Т., 1981; Зеҳний Т. Санъати сухан. – Д., 1967; Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Л., 1972; Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Т., 1979.*

E.O.

F

FAZLIY – hirotlik shoir. Avval naqqoshlik b-n shug‘ullangan. Ora-orada she’rlar ham yozib turgan. Keyinchalik naqqoshlikni butunlay tashlab, faqat she’r yoza boshlagan. “M.N.”ning uchinchi majlisida zikr etilgan va ushbu bayti keltirilgan:

Zohid, biyor xirqavu rahni sharob kun,
Asbobi zuhdu xonayi taqvi xarob kun.

Tarj.: Ey zohid, hirqangni olib kelib, sharob uchun garovga qo‘y, zuhd asbobi va taqvo uyini buz.

Bayt so‘fiyona mazmunga ega. Undagi sharob so‘zi ham ramz sifatida qo‘llangan. Ma’lumki, tasavvufiy doiralarda haqiqiy ishqdan yiroq, boshqalar ko‘zi uchungina yolg’ondakam, ya‘ni riyokorlik b-n toat-ibodat qiladigan zohidlarga kinoya b-n qarash, ularni ma’qullamaslik tamoyili mavjud edi. O‘sha vaqtda adabiyotda “zohidi xushk” degan ibora ham bo‘lgan. She’rda ana shu qarashlar aks etgan. Bayt F. ijodining yo‘nalishi haqida muayyan tasavvur bera oladi. F. badihago‘y shoir bo‘lgan. “Badoye’ ul-vaqoye’”da F., Ahliy, Mavlono Amoniy, mavlono Muqbiliylarning bir yig‘inda badiha aytishgani haqida quyidagicha ma’lumot berilgan: “Bir kechasi bir guruh do‘stlar bu faqirning uyiga to‘planishdi. Mirzabayram qonunini sozladi. Xonzoda Bulbul doira chaldi. Siyahcha xonandalik qildi. Mullo Fayziy va Mullo Ahliy, Mavlono Amoniy, Mavlono Muqbiliy badiha aytishdi”

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Зайниддин Восифий. Бадоеъ ул-вақоеъ. – Т., 1979.*

Q.E.



FAZLIY NAMANGONIY (taxallusi; asl ismi Abdulkarim) XVIII asr 2-yarmi – Namangan – XIX asr 1-yarmi) – shoir, adabiyotshunos. Madrasa tahsilidan so‘ng Namangan va To‘raqo‘rg‘onda turli lavozimlarda ishlagan. Umarxon hukmronligi (1810–1822) davrida Qo‘qonga kelgan. Baland iste’dodi tufayli ko‘p o‘tmay malik ush-shuaro unvoniga sazovor bo‘lgan. Qo‘qon adabiy muhiti N.ga bamisoli ikkinchi hayot baxsh etdi. Chunki Husayn Boyqaro davrining gullab-yashnagan madaniy muhitini o‘ziga namuna qilib olgan bu muhitda o‘z-o‘zidan so‘z saltanatining sultoni N. qalam ahliga ijod yo‘lida rahnamo edi. Uning asarlari sevib mutolaa qilinibgina qolmay, qayta-qayta ko‘chirtirilib, kutubxonalar va turli shaharlarga tarqatilgan, eng bebaho tuhfa sifatida boshqa mamlakatlar hukmdorlariga taqdim etilgan. O‘ziga xos mahorat sohibi bo‘lgan iste’dodli shoirning mavjud she’rlari uning Sharq mumtoz so‘z san’ati zabardast namoyanlari ijodi, jumladan, N. merosidan yaxshi xabardor ekanligini ko‘rsatadi. Jumladan, u ulug‘ shoirning “Talx”, “Emish”, “Bu”, “Ichra”, “Ko‘rung” radifli g‘azallariga betakror tatabbu’lar qilgan. M-n:

Soqiyo, sensiz manga bo‘ldi bu oqshom kom talx,
Dam-badam la’ling xumoridin icharmen jom talx, –

bayti b-n boshlanadigan g‘azali buyuk salafining quyidagi misralari ta’sirida yaratilgani shubhasiz:

Vahki, hijron sharbatidin bizga bo‘ldi kom talx,
Har kishi zahr ichsa, bo‘lg‘ay kom anga nokom talx.

F.N. N.ning “Ko‘rung” radifli g‘azaliga ham go‘zal tatabbu’ qilgan:

Za’flig‘ jismim egildi kasrati paykonidin,
Bu yig‘ochning shoxini xam aylagan borin ko‘rung.

Maz.: Yor otgan behisob o‘qlar oxir-oqibat zaif jismimni yer b-n yakson qildi – bu daraxtning shohlari va bergan hosilini ko‘ring!

Bu yerda oshiqning qurigan jismi daraxtga va unga qadalgan o‘qlar uning mevasiga tashbeh qilinmoqda.

F.N.da esa shunga o‘xshash fikr maqta’ga ko‘chirilib, yor o‘rnini shox egallaydi:

Bar topib Fazliy amri ul-mo‘minin altofidin,
Davlatida bu qurugon shoxni borin ko‘rung.

Maz.: Mo‘minlar amiri (ya’ni Amir Umarxon) lutfidan F.N. samar topdi: bu qurigan shoxning shoh davlatida hosilini ko‘ring!

Baytda shoir o‘zini qurigan shoxga, shoh lutfini esa unga hayot bag‘ishlagan va hosil ato etgan bog‘bonga (homiyga) o‘xshatyapti.

Ikki shoir qalamiga mansub “Bu” radifli g‘azallarda ham ana shunday qator mushtarakliklarni ko‘ramiz.

Ma’lum bo‘ladiki, F.N. N.ning bir butun ijodi b-n yaxshi tanish bo‘lgan. Shuning u-n ham salafining muayyan olingan bir g‘azaliga tatabbu’sida uning boshqa g‘azallarining ham bevosita bo‘lmasa ham, bilvosita ta’sirini sezamiz. Boshqacha aytganda, F.N. buyuk salafi g‘azallariga tatabbu’ bitar ekan, uning bir butun ijodini ta’sir va ilhom manbayi qilib oladi.

F.N.ning qator fikr-u tashbehlarida ham ustoziga hamohanglikni ko‘ramiz. Jumladan, N. ijodida dunyo bog‘ining bevafoligi, uning guliga oshiq bo‘lgan bulbulning kuyib qolishi haqidagi fikrlar turli shakl va mazmunda uchraydi. M-n:

Dahr bog‘i gullarida yo‘q vafo, ey andalib,
Ziyrak ersang, tutmag‘il bu turfa bo‘ston birla uns.

F.N.ning quyidagi bayti mutafakkir shoirning ana shunday fikrlariga hamohangdir:

Dahr bog‘i bevafodur, ne uchun, ey andalib,
Ko‘ngul uzmassen bu gulshanning guli ra’nosidin?

Ma’shuqa tanini gulga, uning terini esa gulobga o‘xshatish Sharq mumtoz she’riyatida bir an’ana tusini olgan. N. g‘azallarida ham bu tasvirning rang-barang ko‘rinishlariga duch kelamiz. F.N.ning qator baytlari ayni baytlar silsilasining o‘ziga xos davomiga o‘xshaydi.

F.N.ning:

Mani, ey sho‘x, tig‘i noz ila ko‘ying aro o‘ltur,
Aning tirnog‘ig‘a qonim hinosidin nigor o‘lsun, –

bayti ham N.ning mashhur:

Takovaringg‘a bag‘ir qonidin hino bog‘la,
Itingga g‘amzada jon rishtasin rasan qilg‘il,

baytini esga soladi.

Ma’lum bo‘ladiki, N. – F.N. u-n ijod yo‘lida ideal bo‘lgan. U g‘azal mulki sultonining ko‘plab g‘azallariga tatabbu’ qilgan, navoiyona uslubda g‘azallar bitgan, buyuk salafining qator tasvir va tashbehlarini rivojlantirib, ularning yangidan-yangi qirralarini ochgan. Agar F.N. devonlari topilsa, N.ning uning ijodiga ilhombaxsh ta’siri alohida yirik tadqiqot mavzusi bo‘lishi mumkin.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Фазлий Намангоний. Мажмуаи шоирон. – Т., 2018; Ўзбек адабиёти (Мажмуа), 4 жилдлик, 3-жилд. – Т., 1959; Жўрабоев О. Навоий даври девончилиги ва Қўқон адабий муҳити \\ “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2015, № 1; Очилов Э. Фазлий ижодида Навоий анъаналари \\ “Алишер Навоий ва Қўқон адабий муҳити” мавзуидаги халқаро илмий анжуман материаллари. Қўқон, 2021; Асадов М. Соқийнома: тарих ва поэтика. – Т., 2020.*

E.O., M.A.

FAYZIY NAZAR ALI – xattot, N.ning kulliyotini ko‘chirgan kotiblardan biri. Nasx va nasta’liqda yozgan. Bu kulliyot Sankt-Peterburg Davlat xalq kutubxonasining Sharq bo‘limida № 558 raqami ostida saqlanadi. 722 varaqdan iborat. O‘lchovi 24x34 sm. Kulliyot tarkibiga N.ning 21 asari kirgan. Kotib qo‘lyozmani Ozarbayjonning Qizilog‘och shahrida to‘rt yil (1001-1004/1592-96) davomida ko‘chirib tugatgan. Qo‘lyozma Farhodxonning saroy kutubxonasi u-n tayyorlangan. Kotib “Lison ut-tayr” so‘ngida (325 bet) “Nazar Ali Fayziy”, “Mahbub ul-qulub” oxirida (varaq: 6940) “Ali Fayziy” deb imzo qo‘ygan. Qo‘lyozma nafis nasta’liq xatida yozilgan. Kulliyot bir muqovada jamlangan. Charmdan ishlangan oliy navli muqovaning ustiga oltin suvi b-n o‘yma rasmlar tushirilgan. Rasmlarda ov manzarasi aks etgan. Muqovaga oltin suvi b-n rasm ishlash Sharq kitobat san’atida kamdan kam uchraydi.

Muh.A.

FAYZULLOYEV Baxtiyor Bobojonovich (02.03.1961, Tojikiston Respublikasi, G‘onchi tumani) – adabiyotshunos, f.f.n. (2002), dotsent (2003). Akad. B.G‘afurov nomidagi Xo‘jand davlat universitetini imtiyozli diplom b-n tugatgan (1983) va o‘rta maktabda o‘qituvchi (1983–89), ta’lim ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari (1989–92), Xo‘jand davlat universitetida o‘qituvchi (1992–95), katta o‘qituvchi (1995–2002), dotsent (2003), O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi kafedrasi mudiri (2009–2012), 2012-y.dan O‘zbek tili, adabiyoti va uning ta’limi metodikasi kafedrasi dotsenti, O‘zbek filologiyasi fakultetida tarbiyaviy ishlar bo‘yicha dekan o‘rinbosari (2020–2021), bo‘lib ishlagan. Hozirgi paytda shu fakultetda ilm va innovatsiya ishlari bo‘yicha dekan o‘rinbosari (2021–2023) vazifasida faoliyat yuritib kelmoqda. F.B.B. 1 ta monografiya, 3 ta ilmiy risola, 5 ta o‘quv qo‘llanma va 100 dan ziyod ilmiy va ilmiy-metodik maqolalar muallifi. F.B.B.ning nomzodlik ilmiy ishi “O‘zbek she’riyatida tatabbu’ tarixi va mahorat masalalari” deb nomlanadi. Unda N.ga ergashib ijod qilgan 20 dan ortiq mumtoz shoirlarning tatabbu’navislik mahorati tahlil qilingan. F. N. ijodiga doir “Navoiyning adabiy-estetik qarashlari”, “Foniy tatabbu’larida Jomiy an’analari”, “Emas oson bu maydon ichra turmoq...”, “Navoiy ijodida hayo talqini”, “Foniy tatabbu’larida fano talqini”, “Ogahiy tatabbu’larida Navoiy an’analari”, “Navoiy ijodi bo‘yicha faol dars”, “Mashrab ijodida Navoiyga izdoshlik”, “Yoshlar kamolotida Navoiy asarlarining o‘rni”, “Xo‘jandda navoiyshunoslik”, “Navoiyni anglash saodati”, “Abdusalom Abduqodirov – navoiyshunos”, “Nishotiy ijodida Navoiy an’analari”, “Adabiy ta’sir va ijodiy o‘ziga xoslik: Navoiy va Nodira”, “Uvaysiy she’riyatida Navoiy an’analari”, “Alisher Navoiyning Tojikistonlik tadqiqotchisi” kabi ilmiy va ilmiy-metodik maqolalar muallifi.

Ad.: *Анъанавийлик ва маҳорат. – Хўжанд, 1997; Поэтика илми таълими ҳаммуал.). – Т., 2014; Ўзбек шеъриятида татаббуъ тарихи ва маҳорат масалалари. – Т., 2021; Адабий таълимнинг муҳим масалалари, 1-китоб – Т., 2021.*

M.A., E.O.

“FALAKDIN GAR MANGA HAR LAHZA ...”

N. g‘azali:

Falakdin gar manga har lahza
yuz qayg‘u kelur o‘tru,
Agar har qayg‘udin so‘ng
bir sevinmak bor, emas qayg‘u.

Va gar har tiyralikka bir
yorug‘luqni inonmassen,
Yig‘i ko‘r charxdin har
shom dog‘i subhdin kulgu.

Kamol istar esang sidq
ahlidin qilma ko‘ngul tiyra
Mukaddar aylamas xurshid
subh anfosidin ko‘zgu.

Safo ahlig‘a gulruxlar
xayolidin tag‘ayyur yo‘q,
Qachon gul aksi tushmaklik
bila gulrang bo‘lg‘ay su.

Tilarsen g‘aflatingni raf’
etib ogohlar naqlin
Ki, g‘ofil elga ul afsonalardin
kam bo‘lur uyqu.

Baqo naqdi hayotingg‘a
chu ermas bir zamon ma’lum,
Diram naqdig‘a umrung
har zamon sarf etmagil asru.

Junun zanjirida oshiq
yonida hiylagar zohid,
Kishi ko‘rsa tasavvur
aylagay sher ollida tulku.

Ko‘ngul mir’oti ichra
jilvagardur yoru sen g‘ofil,
Toriqma hajridin ko‘pkim
emassen yordin ayru.

Fanoning ham fanosin
istagil vasl ersa komingkim,
Bu yo‘lda vosil o‘lmakning
tariqi ushbudur ushbu.

Ketur bir boda, ey soqiyki,
ichsam qolmag‘ay boqiy,
Fanodin bal, baqodin
ham zamirim lavhida belgu.

Navoiy dayr aro mast o‘lsa,
shohIdin panoh andin
O‘tarda tutqusi, albatta,
bir sog‘ar chiqib o‘tru.

“N.Sh.”dan o‘rin olgan (506-g‘azal) o‘n bir baytli ushbu g‘azalda orifona mazmun-mohiyat ifodalangan. Buni matla’danoq anglash mumkin:

Falakdin gar manga har lahza
yuz qayg‘u kelur o‘tru,
Agar har qayg‘udin so‘ng
bir sevinmak bor, emas qayg‘u.

Mumtoz shoirlarning qanoati bo‘yicha, dahr, dunyo, charx, falakdan hech yaxshilik kutib bo‘lmaydi: ular insonni doimiy ravishda qiynaydi, har turli azob va kulfatlarga giriftor etadi. Inson bundan noliydi. Hasrat chekadi. Norozilik bildiradi. Ammo hammasiga chidaydi. Chidashni har kim har xil izohlaydi. G‘azal qahramonining e’tirofiga ko‘ra, falakdan har lahzada mayli unga yuz qayg‘u yuzma-yuz kelsin, agar har qayg‘udan keyin bir shodlik yo quvonch yuz ochsa, demak, qayg‘u yo‘qdir. Navbatdagi baytda shu gapga go‘yo dalil keltiriladi:

Va gar har tiyralikka bir
yorug‘luqni inonmassen,
Yig‘i ko‘r charxdin har
shom dog‘i subhdin kulgu.

Kun va tun, tun va kun doimiy tarzda o‘rin almashganidek, bir tiyralik o‘zga bir yorug‘likka albatta, joy beradi. Bu hayot qonuniyati. Unga ishonmoq kerak. Zulmat joyini nur egallashiga inonilmasa, charxning har shom qaroga burkanishi-yu tongning charaqlab kulishini tasavvur qilish lozim.

Ishonch yo‘li – uzun yo‘l. Bu yo‘lda adashib yo chalg‘ib qolmaslik u-n ishonch, imon darg‘alariga suyanish kerak. Sidq ahli ularning ham peshqadami, ham peshvosi:

Kamol istar esang sidq ahlidin
qilma ko‘ngul tiyra
Mukaddar aylamas xurshid
subh anfosidin ko‘zgu.

Kamolotda shularga ergashilsa, zarra qadar bo‘lsin, ziyon ko‘rilmaydi. Zero, quyosh subh

nafasidan ko‘zguga hech qanday xiralik yetkazmaydi. Buning boshqa bir yorqin isboti esa butun borlig‘ini Alloh ishqiga bag‘ishlagan ahli safoning xayol va tasavvurini gul yuzli sanamlarning o‘zgartirolmasligidir. Axir, gul aksi tushishi b-n suv hech vaqt gulrang bo‘lib qolmaydi-ku!

Safo ahlig‘a gulruxlar xayolidin
tag‘ayyur yo‘q,
Qachon gul aksi tushmaklik
bila gulrang bo‘lg‘ay su.

Inson vujudi fazilat, xislat va hikmat maskani bo‘lganidek, yomonlik, chirkinlik va nuqson qarorgohi hamdir. Ammo nuqsonlarning nuqsonidan biri g‘aflat, ya’ni g‘ofillikdir. Shoirning e’tirofi bo‘yicha, ogoh zotlarning tuyg‘u va tushunchalaridan ibratlanib, g‘aflatni quvishga bel bog‘lash maqbul ish. Bundan so‘z yuritish esa g‘ofil elning uyqusini har qalay ozaytiradi:

Tilarsen g‘aflatingni raf’
etib ogohlar naqlin
Ki, g‘ofil elga ul afsonalardin
kam bo‘lur uyqu.

Odam bolasi har qancha dono bo‘lib, har qancha urinmasin, g‘aflatdan tugal qutulmog‘i qiyin. Uning umri ma’lumdan ko‘proq noma’lumlik ichida o‘tadi. Taqdir sirlarini u aniq anglay bilmaganidek, hayotining nihoyasini ham aniq bilolmaydi. Bas, shunday ekan, umrni horislik b-n mol-mulk va boylik yig‘ishga sarflash ham aqldan emas:

Baqo naqdi hayotingg‘a chu
ermas bir zamon ma’lum,
Diram naqdig‘a umrung har
zamon sarf etmagil asru.

Ruhi erkin, ko‘ngli ozod Shaxsga har qancha zulm qilinmasin, uni qulga, mute bir maxluqqa aylantirib bo‘lmaydi. Qanaqadir bir g‘oya, tushuncha va aqida qullari esa hech payt na ruhan, na fikran erkinlikka erisholmaydi. Tazodli bu holatni, ayniqsa, oshiq va zohid orasida ko‘proq kuzatgan o‘tmish shoirlari biri ikkinchisidan o‘tkir xulosalar ham chiqarishgan. Junun vodiysi – haqiqiy ishq vodiysi. Junun – oshiqning erki, ishqdagi saodati. Hiylagar zohid buni anglay oladimi? Anglaganida sher oldidagi tulkiga o‘xshab ko‘zga tashlanmasdi.

Junun zanjirida oshiq yonida hiylagar zohid,
Kishi ko‘rsa tasavvur aylagay sher ollida tulku.

Keyingi bayt – alohida e’tiborga molik bayt. Undagi fikr – orifning fikri. Alloh, olam va odamni birlikda tanishda orif juda o‘zib ketgan. Uningcha, Yori azalning joyi ko‘ngul. U ko‘ngul mir’otida jamol ko‘rsatadi. Shuning u-n hajrdan siqinib, toriqib qolib, yor mendan yiroqda, deb o‘ylamaslik kerak:

Ko‘ngul mir’oti ichra jilvagardur
yoru sen g‘ofil,
Toriqma hajridin ko‘pkim
emassen yordin ayru.

Hajrning ziddi – vasl. Vasl yetishish, erishish demak. Vasl va vuslat tasavvufiy hayotdagi yo‘lchilikning nihoyasini ifodalaydi. Yahyo bin Muozga ko‘ra, “Toib (tavba qilgan) xavf ila pardalangan, zohid sevgi ila pardalangan, mushtoq yashayotgan ma’naviy holi ila pardalangan. Vosil esa Haqdan boshqa hech nima bilan pardalanmagay”. Fanofilloh maqomiga yuksalish, ya’ni ishqi ilohiyga g‘arq bo‘lish tariqi ana shudir.

Fanoning ham fanosin
istagil vasl ersa komingkim,
Bu yo‘lda vosil o‘lmakning
tariqi ushbudur ushbu.

Baqo nima, fano nima – vuslat sohibi buni bilmaydi. Mabodo xotirda bulardan biror belgi qolgan bo‘lsa, ishq bodasi uni ham bartaraf qiladi.

Ketur bir boda, ey soqiyki,
ichsam qolmag‘ay boqiy,

Fanodin bal, baqodin ham
zamirim lavhida belgu.

Tasavvufiy tushunchada, yashashdan ko‘zlangan tub maqsad bir go‘zallik izlashdir. Jamoli mutlaqqa vosil bo‘lish – ishq va oshiqlikning so‘nggi hadafi. Allohni vujudi mutlaq, soqiyi azal, shohi olam deya tasavvur qilgan oshiqlar Undan turli zaylda madad va iltifotlar kutishgan. N. ham mana bunday umid b-n g‘azalga nuqta qo‘ygan:

Navoiy dayr aro mast o‘lsa, shohidin panoh andin
O‘tarda tutqusi, albatta, bir sog‘ar chiqib o‘tru.

Shoir nazarda tutgan “sog‘ar”ni murshidi komilning ko‘ngli, deya o‘ylash mumkin. Lekin undagi “may” insonni Allohga yo‘naltiruvchi va U b-n birlashtiruvchi maydir.

Ad.: *Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

I.H.

“FALAK G‘AMXONASIDAKIM...” – “H.A.”ning LVI bobidan joy olgan 18-maqolat. Unda N. bu dunyoning g‘am-tashvishlariga taslim bo‘lmay, hayot gulshanidan esgan har nafasning qadrini bilish, umr gulidan chiqqan har bir xush isning shukrini qilish, ko‘ngil uyini obod va o‘zini xurram tutishi lozimligini ta’kidlaydi. Dunyo aqlli odamlar u-n zindon, unga kim ko‘ngil qo‘ygan bo‘lsa nodondir, deya uqtirib:

Chunki jahon bog‘i vafosiz durur,
Umr guli anda bahosiz durur,

deydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011.*

E.Q.

“FALONG‘A AJAB HOL ERURKIM...” – N.ning “N.Sh.” devoniga kiritilgan qit’a.

Ne qilsa alar birladur mojarosi
“To‘zilmas aning birla ul el arosi.
Qazon yo‘qki ul anda kafliz emastur,
Ki, bo‘lsun yuziga qazonlar qarosi.

“Falon” deb atalgan bu kimsa XV asr odamlarining asabini qandoq “qaqshat”gan bo‘lsa, bugun ham o‘sha “faol”ligini to‘xtatgani yo‘q. Aksincha, kuchaytirgan. Gap shundaki, hamma zamonlarning ham yo‘q joylardan chang chiqaruvchi, el-yurt b-n ittifoqda yashasa, boshi og‘riydigan mojaroparastlari bo‘ladi. XX asrda bularning son-sanog‘i ko‘paysa ko‘paydiki, kamaymadi. Ular el oshiga bir no‘xat qo‘shishga qodirmas. Ammo, xaloyiq dilini siyoh etishga usta. Ular yaxshilik muhitiga yomonlik dilsiyohlik keltiruvchilardir. Bunday fosiq va fitna qo‘zg‘ovchilar b-n el o‘rtasida yaqinlik bo‘lishi mumkinmi? Qizig‘i shundaki, bu asabbuzar va dilsiyohlardan el qancha o‘zini uzoq tutsa, ular o‘shancha suquluvchan, yuzsizlarcha aralashuvchan bo‘ladilar. Bu haqiqatni hazrat N. esdan ko‘tarilmaydigan obrazda ifoda etib deydilar:

Qazon yo‘qki ul anda kafliz emastur,
Ki bo‘lsun yuziga qazonlar qarosi.

Qozon bor, ya’ni xaloyiq jam bo‘lgan joylarga nazar tashlang, qaysidir nokas “kafgir”likka intilayotganini darrov payqaysiz. O‘shanda munosabatingizni unutmang. N. xuddi shunday yuzsizlarga nisbatan: “Ki bo‘lsun yuziga qazonlar qarosi”, deganliklarini yoddan chiqarmang.

Ad.: *Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2011; Ҳаққул И. Касби камол ўзни танишдир. – Т., 2021.*

I.H.

FANO (ar.) – yo‘q bo‘lish; tugalish; o‘lish; baqosizlik; tasavvufda o‘zlikdan kechish, foniy bo‘lish. Narsa va ashyolarning so‘fiy nazaridan

barham topishi. F.ning tub ma'nosi – bandaning yomon axloq va fe'llarni tark qilib, Allohning go'zal sifatlari va ilohiy fe'llariga erishishi, bashariy irodadan ilohiy irodaga ko'chishi. F. holidagi oshiq "men"ligini unutishi b-n tavhid asroriga sohib bo'ladi. Tavhidning yuqori darajasi esa fanofillohdir. Bu esa inson zoti va sifatining Haq zoti va sifatida foniy bo'lishi. Baqo o'zida barcha yaxshi sifatlarni mujassam etish bo'lsa, F. – o'zidagi barcha yomon sifatlarni yo'q qilish yo'li b-n Allohga yaqinlik qilishdir. F. jismoniy yo'q bo'lish emas, ma'nan o'zida o'lib, Haq b-n tirilishdir. "O'lmasdan burun o'lmoq" hadisi F. holatiga ishora qiladi.

Abdurahmon Jomiy "Nafahot ul-uns" kitobida keltiradi: "Payg'ambarimiz (s.a.v.)ning F. holatidagi "istig'roq"lari barcha payg'ambarlarnikidan kuchli edi. Shuning u-n ham Haq subhonahu taolo uning fazlini o'ziga nisbat berib aytdiki: "Ey Muhammad (s.a.v.), Badr jangida qo'lingdagi bir siqim tuproqni mushriklarga otgan paytingda, Sen otmading balki, Alloh otdi ("Anfol" 17-oyat). "N.M."da ta'kidlanishicha, F. va baqo ilmida eng avval so'z aytgan kishi Abu Said Xarrozdir. Shayx Abubakr Zaqqoqi Sag'ir esa "Junayddin fanoda bir so'z eshitibmen, hanuz aning choshni (ta'mi, maza)si jonimdadur", deydi.

Xoja Abduxoliq G'ijduvoniyga ko'ra, nafs F.si sarhadiga yetganlar g'azabga berilmaydilar va ularga Shayton yo'l topa olmaydi. Solik ko'ngil tasfiyasi va ruhni darajama-daraja yuksaltirish orqali fanofil ishq darajasiga erishadi. "Fano deb, Haqdan boshqa narsalarning Haqda nest-nobud bo'lishidir". "Istig'roq"ning ma'nosi "tavhid dengiziga sho'ng'ish va g'arq bo'lish", demakdir. Hamisha zikr b-n mashg'ul bo'lgan zokir orifning fikr-u xayoli o'zida bo'lmaydi, mutlaqo begona bo'ladi. Bu holatni "fano" deydilar.

F. tasavvuf maqomlarining oxirigi bosqichlaridan. F.dan keyin baqo keladi. N. "L.T." dostonida sulukning yetti bosqichini qushlar vositasida majoziy yo'l b-n bayon qiladi. Tasavvufda solikning ruhiy takomillashish yo'lida bosib o'tishi lozim bo'lgan *yetti vodiy, ya'ni* yetti ma'naviy maqom: talab vodiysi, ishq vodiysi, ma'rifat vodiysi, istig'no vodiysi, hayrat vodiysi, tavhid vodiysi, faqr-u fano vodiysi. Demak, so'fiylar nazdida F. tasavvufning oxirgi bosqichlaridan biri bo'lib, unga erishish oson hisoblanmagan.

"N.M." asarida keltirilishicha, Abulhasan Xaraqoniydan: "Fano va baqo haqida so'z aytishga kim munosib?" deb so'rashganda: "Bir kishini osmonda bir tor ipak ip bilan osib qo'ysang, shu odamni binolar va yog'ochlarni qo'porib tashlaydigan va daryolarni jo'shtirib yuboradigan shamol o'rnidan tebratolmasa, shu odam munosib", deb javob bergan ekan.

N. F. haqida ko'p g'azal va fikr-munosabat bildirgan. Bu so'zni turli ma'noda qo'llagan. Ayniqsa, tasavvufiy g'azallarida F.ning qirralari va injaliklarini obrazli tarzda ifodalagan. Bir o'rinda, F. tushunchasi sharhlansa, yuz risola bo'lishi, uning muxtasar ma'nosi: "O'lmasdan burun o'lmoq" ekani ta'kidlangan:

Deding: "Fano nedurur?"
Muxtasar deyin: "O'lmak!"
Ki sharhin tilasang, yuz risola bo'lg'usidur.

N. F. haqidagi baytlarida solikni aql emas, ishq, oshiqlik ko'yida telbalarcha odim tashlash, mahbub ishqiga g'arq bo'lish maqsadiga erishtiradi, deydi.

F.likda faqirlik holati borligi, bir-birini taqozo etadigan jihatlarga sohibligi u-n "faqr-u fano" degan ibora qo'llanadi.

Foniy, ba rohi faqr-u fano xok agar shavi,
Boloi charx joy kuni az uluvvashon.

Tarj.: Ey Foniy (Navoiy), agar faqr-u fano yo'lida tuproq bo'lsang, sha'n-u shavkating ulug'ligidan charxning to'ridan joy olasan.

Chunki faqr-u fanoning tuprog'i, zohidning riyo b-n qilgan amalidan yaxshiroqdir.

N. F.ga erishgan kishilarni ma'naviy sultonlar ekaniga ishora qiladi va zamon hokimlariga ehtiyoj sezmayin desang, F. mayxonasining gadolaridan bo'l, degan aqidani ilgari suradi.

Zohido, sen bo'l riyo avji uza masnadnishin
Kim, Navoiyg'a erur faqr-u fano tufrog'i xo'b.

N. “fano dayri”, “fano jomi”, “fano kasbi”, “fano mayi”, “rasmi fano”, “ gardi fano”, “fano dashti” kabi istioraviy iboralar orqali yangi-yangi ma’nolarni ifodalaydi. Ayrim o‘rinlarda F. so‘zini tasavvufiy ma’noda emas, foniy, yo‘q bo‘luvchi kabi ma’nolarda talqin qiladi. Bu foniy dunyoning o‘tkinchi ekanini bilganimdan keyin odamlarning xush-u xursandchiligi, ishrati men u-n motam-u fig‘on bo‘lib tuyildi, deydi:

Bu fano dayrin baqosiz erkanin to angladim,
El surudi ishrati motam fig‘onidur manga.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Саййид Жаъфар Сажжодий. Фарҳанги истилоҳот ва таъбироти ирфоний. Теҳрон. 1370 (ҳ.-ш.); Абу Абдураҳмон Сулаймон Жазулий. Далойил ул-хайрот. – Бомбей, 1310 (ҳ.қ.); Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005; Девони Хожа Ҳофизи Шерозий. Бомбай. 1277 (ҳ.-ш.); Иброҳим Ҳаққул. Навоийга қайтиш. 2-китоб. – Т., 2011.*

I.H., S.R.

FALAQ – jazo vositasi. Ma’lumki, eski ibtidoiy maktablarda jismoniy jazo b-n ham bolani to‘g‘ri yo‘lga solish – tarbiyalash nazarda tutiladi. Vazifani bajarmagan yoki dars paytida intizomsizlik qilgan bolani maktabdor domla F. nomli jazo vositasi orqali qiynoqqa solgan. F. ketmon sopiday ikki tayoqqa chilvir arqon tortilgan. Gunohkor bola oyoqlariga F. chilvirlari o‘tkazilib, tayoqni burash orqali oyoqlar siqib og‘ritiladi. Bu ham oz bo‘lsa, oyoq kaftiga tayoq b-n uriladi. N. “G‘.S.”da nafs tarbiyasini bolalarning maktabdor ustoz tomonidan jazolanganidek amalga oshirish lozimligini ta’kidlaydi:

Nafsing etsa sho‘xlug‘ charx emgagidin qil adab,
Tiflni andoqki zajr aylar falaq birla adib.

Maz.: “Nafsing sho‘xlik qilsa, falak mashaqqatlari bilan adabini berib qo‘y, xuddi maktabdor ustoz bolani falaq bilan jazolaganidek”.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011.*

V.R.

FARANG (Farangiston, Faranj, Afranj) – Yevropa. N. asarlarida yirik jug‘rofiy hududga ishora etgan bo‘lib, ayrim o‘rinlarda vazn talabiga ko‘ra Afranj shaklida ham qo‘llanilgan. Mazkur lafzning *farangiy, farangiyvash* shaklidagi turli o‘zakdoshlari orqali badiiy asar g‘oyasi va mazmunini chuqurlashtirishda, lirik she’rlarida ham to‘g‘ri, ham majoziy ma’nolarda istifoda etgani kuzatiladi.

Harbiy, ilm-fan, sanoat, texnika sohalarida taraqqiyotga yuz tuta boshlagan Yevropa tasviri N.ning “S.I.” devonida maxsus urg‘ulangan. Jumladan, Doro b-n jangga kirgan Iskandar qo‘shinlarining borong‘ori, ya’ni o‘ng qanotiga F. sipohiylarini joylashtirgan:

Borong‘orin aylab sipohi farang,
Bori qon to‘karga bo‘lub bedarang.

Mazkur sipohiylarga bosh bo‘lgan sipahdor Shaybolning liboslari esa F.iycha, yetti rangli baxmallardan tikilgan:

Kiyimlar guhardin mukallal bori,
Farangiy yeti rang maxmal bori.

Alam shuqqasi dog‘i jinsi farang,
Ham ul borcha zarbaftu ham yeti rang.

Boshqa bir o‘rinda F. istilohini “Afranj” shaklida uchratamiz, bunda N. she’rlari kitobxonga masofaning anchayin uzoqligi yoki o‘sha maskan nimalari b-n mashhur bo‘lgani haqida bilimlar beradi:

Chu yo‘q bu kishvari islom aro vafo bila mehr,
Xusho navohiyi Afranju xittai Tartus.

Misralarda N.ning lirik qahramoni olam nizomining buzila boshlaganidan, odamlar orasida, xususan, islom mamlakatlarida vafo va mehr yo‘qolib borayotganidan afsuslanib, bunday o‘lkalardan ko‘ra F. (Yevropa) va Tartus (hozirgi Suriya) mamlakatlari yaxshi bo‘lib qoldi, deydi.

“G‘.S.” devonidagi bir g‘azali matla’sida Fanoni qasd etgan solik holidan so‘z ochgan shoir, she’r so‘nggida Fano maqomiga erishish u-n Madina yoki Afranjda turgan bo‘lsa ham, ko‘ngil saroyidan xavotir sanamini haydab chiqarishi lozimligini aytadi. Ya’ni shoir demoqchiki, kim qayerda va qanday sharoitda bo‘lmasin Fanoni istasa, uning shartlariga ko‘nishi va talablarini ado etishi kerak

Itur ko‘ngul haramidin xavotir asnomin,
Navoiy, o‘lsa maqoming Madina, gar Afranj.

Ulug‘ mutafakkir “G‘.S.” debochasida Sulton Husayn e’tiboriga havola etayotgan g‘azallarini nihoyatda betakror tashbehlar b-n tilga oladi: *“... kashmiriysi sehrsozlig‘da dilrabovu dilkash va rumiysi turktozliqda kofiroyin-u farangiyvash va xitoyisi xunrezlig‘da novakzanu shershikor va xo‘-taniysi fitnaangizlig‘da sherafkanu g‘izolakirdor”*.

“H.A.” dostonidagi F. B-n bog‘liq tasvir esa yanada qiziqarli. Hazrat N. Xoja Bahouddin Naqshbandni madh etar ekan, uning naqsh soluvchilik hunarini ham ta’kidlab turib, “sun’ naqqoshi hikmat xomasi bila ro‘zgor sahifasida aning vujudi naqshin islomiy tarh etti va surati irshodi bila kufr ahli ko‘ngli varaqidin xitoyi va farangi naqshi ketti”, Ya’ni qalbdagi xitoyi va farangi naqshlarning ketishi dunyoviy hoy-u havaslarning ketishiga ishoradir.

Yuqorida ta’kidlanganidek, N. ba’zi o‘rinlarda F. atamasi b-n nihoyatda uzoq masofalarni qasd etadi:

Farang ahlida zulmining fig‘oni,
Xitou Chinda javri qo‘zg‘aloni.

Shoir ko‘ngil qo‘ygan mahbubining ovozasi Farang (Yevropa), Xito (Koshg‘ar) va Chin (Xitoy)ga ham yetib borgan edi, ya’ni G‘arbda ham Sharqda ham ma’lum edi, demoqchi bo‘ladi. “L.M.”da o‘quvchi duch keladigan F. toponimi esa Majnun Ishq dardiga mubtalo bo‘lgan ilk chog‘larda ota-onasi uni darddan xalos etish u-n ko‘p choralar ko‘rishi b-n bog‘liq.

Mazkur misralardan ham darrov bilish mumkinki, F. yoki Yevropada N. yashagan asrlarda sanoat b-n birga tib ilmi ham ma’lum yutuqlarga erishib ulgurgan.

“S.S.”da esa 2-iqlim yo‘lidan kelgan musofir so‘ylagan hikoyat qahramoni – zargar Zaydning Rum podshohi huzurida makkorliklari fosh bo‘lgach, chohga tashlanadi. Zindondan ham qochishning uddasidan chiqqach, F.ga yo‘l oladi:

Bildi, shah topsa o‘lturur ani jazm,
Turmay etti Farang sari azm.

Ham javohirg‘a dastkor farang,
Aylab omoda shisha rango-rang.

Rum molini aylabon barbod,
Aylar ahli farang birla jihod

Yo‘lda har lahza topib o‘zgacha ranj,
Bo‘lg‘uncha jilvagohi mulki Faranj.

Ki, daryoyi Afranjau Rum edi
Ki, holot anga g‘ayri ma’lum edi.

“S.I.” dostonida shoh Iskandar fath etgan davlatlarning kattaligi va kengligini ochiqroq bayon etish u-n N. yana F. toponimidan foydalangan:

Yana mulk ochmoqta qilmay darang,
Yurub fath qildi bilodi Farang.

Zero, tarixda ham Iskandarning F. o‘lkalarini egallagani uning eng katta zafarlaridan biri bo‘lgan:

Yana o'zim o‘ldum chu qilmay darang,
Nasib o‘ldi Haqdin diyori Farang.

“T.A.H.”da ham N. Arastuning shogirdi Balinos hakimni ta’riflar ekan, uni Iskandari-

ya minorasining tilsimini yasaganini qayd etganidan ham bilish mumkinki, aql-zakovatda, bilim-tajribada F. ahli qadimdan yuksak pog‘onada bo‘lishgan: *“Aristotolisning shogirdidur. Iskandariya minorasi tilisminikim, Farang ahli qilg‘on, anda ko‘runur erdi, Balinos yasab erdi”.*

Shuningdek, “N.M” tazkirasida Sulton Valad (q.s.)ga bag‘ishlangan bo‘limda F. istilohi b-n bog‘liq bir qiziq hikoyat keltirilgan. Muxtasar shuki, Sulton Valad otasi Mavlono Rumiy uni Damashqqa, ulug‘ avliyo Shams Tabriziyni olib kelish u-n yuboradi. Solihiya karvonsaroyida u b-n shatranj o‘ynab o‘tirgan yigit esa farangi kofir bo‘lib, tariqat murshidiga ko‘rsatilgan niyoz, hurmatni ko‘rib, o‘z beadabliklaridan uyaladi, bosh kiyimini yechib, iymon keltiradi. O‘rnidan turib, hurmat ko‘rsatadi va qo‘lidagi bor boyligini ham tortiq qiladi. Shams Tabriziy esa ularni olmaydi, balki yigitni F.istonga qaytib, u yerdagi azizlarni iymonga musharraf qil, jamoatning qutbi bo‘l, deya irshod qilishga buyuradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамсат ул-мутаҳаййирин. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. Ҳозирги ўзбек тилига табдил. – Т., 2018; Абу Ҳомид Газзолий. Кимиёи саодат. – Т., 2005; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4-жилдлик, 4-жилд. – Т., 1984.*

S.R.

FARANJ – **Q.:** Farang

FARANGIS – “S.I.” dostonida epizodik personajlaridan birining nomi. Xiroj to‘lashdan bosh tortgan Iskandarga qarshi yurish maqsadida Doroning o‘ziga qaram bo‘lgan o‘lka-yurtlardan qo‘shin to‘plash lavhasida “Xovaron mulkidin” askar boshlab kelgan lashkarboshi:

Farangisdek Xovaron mulkidin,
Davoli kibi Shirvon mulkidin...

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

A.A., M.A.

“FARZAND” – N.ning o‘zi faxr b-n qo‘llagan, hasbi holidan xabar beruvchi va yosh avlod u-n tarbiyaviy ahamiyatga molik so‘z hamda bag‘rikenglikning poetik timsoli. Hirotdan Samarqandga kelgan yosh N. – musofir bir talabaning katta ulamo ustozidan iltifotlar ko‘rib, F. maqomini olishi ham juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. “M.N.”da bu haqda shunday yozilgan: “Xoja Fazlulloh Abullaysiy – Samarqand akobiridindur. Faqih Abullays avlodidindur. Fiqhda ani Abu Hanifai Soniy derlar erdi va arabiyatta Ibn Hojib kaffasida tutarlar erdi. Sayyid Sharifning shogirdi erdi va Sayyid o‘z xatlari bila ulumi dars ayturg‘a ijozatnomalar aning uchun bitib erdi. Faqir ikki yil alarning qoshida sabaq o‘qub erdim, ancha iltifotlari bor erdikim, “Farzand” der erdilar... Samarqandning a’lami ulamosi erdi”.

Komil axloq egasi bo‘lgan, yuksak bilim va ma’rifatga sohiblikka intilgan shogird-u ilm toliblariga “F.” deya murojaat qilishini ulug‘lar tomonidan e’tirof-u e’tiborning nishonasi, o‘zaro yaqinlik belgisi edi. Xoja Muayyad Mehna (q.s.) ham N.ni “F.”, deb ataganini mutafakkir shoir faxr b-n esga oladi: “Bu haqirni farzandliq lafzi bila sarafroz qilib, xayr duosi ko‘p etib, boramda fotihalar o‘qub erdilar. Umid ulki, biri mustajob bo‘lg‘ay”.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

B.R.

FARIDIDDIN ATTOR (taxallusi; to‘liq ismi: Farididdin Abuhomid Muhammad ibn Abubakr Ibrohim Nishopuriy (1145–1221, Nishopur) – yirik mutasavvif shoir. Otasi Abubakr ibn Ibrohim attor va tabib edi. Bu kasb o‘g‘liga ham meros bo‘lib o‘tgan. Shoirning Attor nomi b-n xalq ichida mashhur bo‘lishi va uni adabiy taxallus qilib olishi shundan.

Yoshligidan ilm tahsiliga qiziqqan Muhammad adabiy, diniy, hikmat-u kalom, nujum, tib va dorishunoslik fanlarini chuqur o‘zlashtirib, o‘z davrining peshqadam kishilaridan biriga aylanadi. U so‘fiylik muhiti va tasavvuf ahli orasida yashaganidan bu ta’limot unga kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Voqean, otasi Ibrohim mashhur avliyo Qutbiddin Haydarning muridi edi. Uning o‘zi ham yirik shayx va avliyo bo‘lgan. F.A. shayxlar shayxi Majdiddin Bag‘dodiy qo‘lidan darveshlik xirqasini kiygan. Bu haqda “N.M.”da o‘qiymiz: “Alar Shayx Majduddin Bag‘dodiy murididurlar va “Tazkirat ul-avliyo” kitobikim, alarning musannifotidindur. Aning debochasida o‘zlarining Shayx Majdudding‘a irodatlarin zohir qilibdurlar”.

Eronlik mashhur adabiyotshunos Said Nafisiy ham uni kubraviya tariqatining davomchisi bo‘lgan, deb hisoblaydi. Shunga qaramay, F.A. tariqat sulukida Shayx Rukniddinning muridi sanaladi. Aslida u uvaysiy bo‘lib, mashhur so‘fiy Mansur Hallojning ruhidan tarbiya topgan. N. Jaloliddin Rumiy tilidan bu haqda “Shayx Mansur Halloj nuri yuz ellik yildin so‘ngra Shayx Farididdin Attor ruhiga tajalliy qildi va uning murabbiysi bo‘libdir”, – deb yozadi. Ayni paytda F.A. Jaloliddin Rumiyning kelajagini bashorat qilib, unga o‘zining “Asrornoma” kitobini hadya etgan. Rumiyning: “Attor ruh edi-yu, Sanoiy uning ikki ko‘zi. Biz Sanoiy va Attor izidan keldik”, – degan iqrori bejiz emas. N.ning ham F.A.ga ixlos-e’tiqodi baland bo‘lib, besh yoshida “Mantiq ut-tayr”ni yod olgani, bir umr uning ijodidan ta’sirlanib, hayotining so‘nggida unga “tarjuma rasmi bila” javob aytgani – “L.T.”ni yaratgani ma’lum. Bu dostonda N. F.A.ni – Qaqnus, o‘zini – Qaqnus bolasiga o‘xshatgan edi.

F.A. juda sermahsul shoir bo‘lib, uning 40 tadan 190 tagacha asar yozgani naql qilinadi. U Qur’oni Karim suralari miqdoricha, ya’ni 114 ta asar yaratgan degan ma’lumotlar ham mavjud.

N. “L.T.”ning F.A. ta’rifiga bag‘ishlangan 13-faslida qisqa misralarda bu asarlarning mavzu-mohiyatini ko‘rsatib o‘tadi. Aytaylik, “Ilohiynoma” – ilohiy sirlar sharhi bo‘lsa, “Musibatnoma”da shoir “nafsqa yuz musibat ayon” aylaydi, “Ushturnoma”da shohlar boshiga toj bo‘lgulik ma’no durlarini tizgan esa, g‘azallarida vahdat asrorini badiiy talqin qilgan, “Muxtornoma”sida ma’no olami xususida alohida-alohida ma’lumot bergan, “Tazkirat ul-avliyo”si orqali yuzga yaqin avliyoga qayta hayot bag‘ishlagan. Lekin bu asarlarning barchasi bir tarafu “Mantiq ut-tayr” bir taraf:

Ondakim, darj etti qushlardin maqol,
O‘zga tildir, o‘zga so‘zdur, o‘zga hol.

“Xusravnoma” dostoni debochasida esa F.A. ning o‘zi “Musibatnoma”ning tariqat yo‘lchilarining ma’naviy ozig‘i, “Ilohiynoma”ning shohlar xazinasi, “Asrornoma”ning ma’rifat olami, “Muxtornoma”ning dil ahlining – oriflarning jannati, “Mantiq ut-tayr”ning ishq qushi u-n jon me’roji ekanligini lutf etadi.

Abdurahmon Jomiyning e’tirof etishicha, biror-bir shoir ijodida tavhid asrori va tasavvuf haqiqatlari F.A. asarlarida aks etganiday o‘zining keng va chuqur badiiy talqinini topmagan. N. ham “vahdat asrorini tafsir” aylagani jihatidan uning asarlari o‘lgan ko‘ngillarga hayot baxsh etishini ta’kidlagan edi.

“N.M.” tazkirasida ham F.A. haqida ancha keng ma’lumot berilgan. Bundan tashqari, “M.Q.”, “M.N.”, “M.L.”, “Xam.M.”, “H.S.H.A.” asarlarida ham u yoki bu munosabat b-n F.A.ga nomi tilga olingan.

N. “M.Q.” asarida qalam ahlini ilohiy ishqni ulug‘lagan, ilohiy va majoziy ishqni omuxta hol-

da tarannum etgan va majoziy ishqni kuylagan shoirlar sifatida uch toifaga ajratar ekan, F.A.ni birinchi toifaga kiritadi. Bu toifaning she'riyatdan maqsadi ilohiy sirlarning nazmiy talqini – ma'no xazinasidan ma'rifat gavharini terib, o'quvchilar fayz olishi u-n nazm rishtasiga tizishdan iborat.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Хамсат ул-мутаҳаййирин. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ҳолоти Саид Ҳасан Ардашер. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Арбаъин. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Абдураҳмон Жомий. Нафаҳот ул-унс. Осор. Дар 8 жилд. Жилд 8. – Душанбе, 1990; Мухаммедходжаев А. Мировоззрение Фаридиддина Аттора. Душанбе 1974; Ҳомидий Ҳ. Тасаввуф алломалари. – Т., 2004; Бертельс Е.Э. Навоий ва Аттор (И.Мирзаев тарж.). – Т., 2005; Саидов А., Атторшунослик. – Т., 2013; Очилов Э. Аттор абадияти. Шайх Фаридуддин Аттор Нишопурий. Асрорнома. – Т., 2012. Фаридиддин Аттор Нишопурий. Тазкират ул-авлиё. – Теҳрон, 1389 (ҳ.-ш.); Аттор Нишопурий. Мухторнома. – Теҳрон, 2008; Девони Фаридиддин Аттор Нишопурий. Теҳрон, 1375 (ҳ.-ш.); Фаридиддин Аттор. Тазкират ул-авлиё. – Т., 1997; Шайх Фаридиддин Аттор. Мантиқ ут-тайр. – Т., 2006; Шайх Фаридиддин Аттор. Илоҳийнома. – Т., 2007; Шайх Фаридиддин Аттор. Асрорнома. – Т., 2008; Шайх Фаридиддин Аттор. Булбулнома ва Панднома. – Т., 2011; Шайх Фаридиддин Аттор. Уштурнома. – Т., 2012; Шайх Фаридуддин Аттор Нишопурий. Асрорнома ("Мантиқ ут-тайр", "Асрорнома", "Илоҳийнома", "Панднома", "Булбулнома", "Уштурнома"). – Т., 2012; Фаридиддин Аттор. Рубоийлар. Муҳаббат тароналари. – Т., 2005; Ислом тасаввуфи манбалари. – Т., 2005.*

E.O.

FARIDUN (AFRIDUN) – qadimgi Eron rivoyatlaridagi personajlardan biri. "Avesto", "Bundaxshin", "Minui Xirad", Beruniyning "Osor ul-boqiya" va boshqa asarlarda F. haqida ma'lumotlar beriladi. Firdavsiyning talqiniga ko'ra, F. Jamshidning avlodi bo'lib, Kovai ohangar (q) madadi b-n Zahhokni qatl qiladi va taxtni qo'lga kiritadi. "Shohnoma"da F.ning odil va tadbirkor bo'lgani yozilgan. F. Avesto va shunga o'xshash qadimiy manbalarda ham kelgan. "Tarixi Tabariy" va Beruniyning "Osor ul-boqiya" asarlarida F. haqida ma'lumot berilib, uni qadimiy Mehrgon bayramining asoschisi, ya'ni F. Kovai Ohangar va xalq yordamida Zahhokka qarshi urush ochib, uning ustidan g'alaba qilgan kun, deb yoziladi. Ba'zi manbalarda, F. Gov Asfiyonning o'g'li ("Burhoni qoti'") deyilgan. F. umrining oxirgi damlarida podsholikni uch o'g'li – Salm, Tur va Erajga taqsimlab beradi.

N. "T.M.A." asarida F.ni peshdodiylar sulolasining vakili sifatida keltiradi va "yaxshi axloqlik olim va odil podshoh erdi. Olam aqlin adolat bila xushhol qilib, Zahhok javridin topqon zahmlarig'a adl bila malham qo'ydi", deb ta'riflaydi. F. Zahhokka qarshi qo'zg'olon ko'targan Kovai ohangarni (temirchi Kova) qo'llab-quvvatlagan va uning "charm fartug'ini" yog'ochga bog'latib bayroq qildirgan va bu bayroq "dirafshi koviyon" deb atalgan.

N. bu haqda "S.I."da yozadi:

Faridun edi so'ngra ofoqgir,
Anga bori ofoq farmonpazir.
Boshi uzra toji kayoniy bo'lub,
Dirafshi aning koviyoniy bo'lub.

N. F.ning podshohligi 500 yil, Muso va Horun uning zamonida yashaganlar, – deydi. "T.M-

.A.”ning F.ga bag‘ishlangan qismi quyidagi she’r b-n yakunlangan:

Faridunki, olamda yoydi bisot,
Base olam ahlig‘a etti nishot.
Ani ham falak chekti tufroq sori,
Ne zolim, ne odil ketarlar bari.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Хамсат ул-мутаҳаййирин. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

Q.E., B.R.

FARIDUN HUSAYN MIRZO (1479, Hirot − 1508, Qalot) − shahzoda. Husayn Boyqaroning o‘zbek beklari xonadonidan bo‘lgan Minglibiy Og‘acha begim degan xotinidan tug‘ilgan sakkizinchi o‘g‘li. Minglibiy uch o‘g‘il (Abuturob Mirzo (1472), Muhammad Husayn Mirzo (1476), F.H.M. va ikki qiz (Bayram Sulton begim, Fotima Sulton begim)ning onasi edi. Domg‘on viloyatida hokim bo‘lgan. Akasi Muhammad Husayn mirzo vafot etgandan keyin uning o‘rniga Astrobod hokimi etib tayinlangan (1503). F.H.M. Husayn Boyqaroning boshqa o‘g‘illaridan farqli o‘laroq, shijoatli, jasur va harbiy ishga mohir bo‘lgan. U shayboniylar qo‘shiniga qattiq qarshilik ko‘rsatgan va shiddatli janglar qilgan. 1507-y. da u Raboti Dudar degan joyda Shayboniyxonning o‘g‘li Temur Sulton va jiyani Ubaydullo Sulton b-n jang qilgan. Jangda u jasorat ko‘rsatgan bo‘lsa-da, shayboniylar qo‘shini g‘olib chiqqan. Ikkinchi marta u Domg‘onda shayboniylarga qarshilik ko‘rsatgan va mag‘lubiyatga uchrab, asir tushgan. Shayboniyxon uni o‘ldirmagan va qo‘yib yuborgan. Bu mag‘lubiyatlar F.H.M.ning irodasini buka olmagan va u kurashni davom ettirgan. Qalot qal’asida bo‘lgan jangda F.H.M. ikkinchi marta shayboniylar qo‘liga asir tushgan va qatl etilgan (1508). F.H.M ayrim shahzodalarga o‘xshab hokimiyatparast bo‘lmagan. Badiuzzamon va Muzaffar mirzolar Shayboniyxondan yengilib, Astrobodga qochib borganda, F.H.M Astrobodni ularga bergani va o‘zi Domg‘onga ketgani buning dalilidir. Umuman, manbalardagi ma’lumotlardan ushbu shahzodaning inson sifatida ham, hukmdor sifatida ham yaxshi xislatlarga ega bo‘lganligi haqida xulosa qilish mumkin.

F.H.M. adabiyotga qiziqqan va she’rlar yozgan. N.ning “M.N.” tazkirasining badiiy ijod b-n shug‘ullangan temuriy hukmdorlar kiritilgan yettinchi majlisida F.H.M. ham zikr etilgan. N. “M.N.”da shahzodani Faridun fazilatlik va Husayn nasablik, zotida ulug‘lik va viqor namoyon, “xulqi adab va hurmat shiorliq, yoy kuchida yagona va o‘q otarda zamona ahliga nishona. Toat va taqvoga moyil, zikr va tilovatqa mashg‘ul yigitdur, xo‘b tab’i va muloyim zehni bor”, deb ta’riflab, bir forsiy, bir turkiy matla’sini misol tariqasida keltiradi:

Garchi dar ko‘i tu pomoli jafo gardidaam,
Ba Xudo, gar sari mo‘e zi vafo gardidaam.

Tarj.: Garchi sening ko‘yingda jafo meni ezib yuborgan bo‘lsa ham, Xudo haqqi, vafo yo‘lidan qilcha chetga chiqqanim yo‘q.

Ey sabo, yetkur manga sarvi ravonimdin xabar,
Rahm etib, bergil manga oromijonimdin xabar.

“M.N.”ni fors tiliga tarjima qilgan Faxriy Hirotiy N. ma’lumotlariga qo‘shimcha qilib, “nihoyatda xushta’b va darveshsiyrat yigit edi. Agar Sulton Husayn Boyqaroning barcha avlodi go‘zal axloqli, ibratli atvorli va fazlu kamol b-n orosta, she’r va muammoda o‘tkir bo‘lsalar, bu ularning peshqadami va eng yoqimlisi edi. Aytish mumkinki, u har sohada fazilatli edi”, deb yozadi. U N. keltirgan misollarga yana shahzodaning uch forsiy matla’sini ilova qiladi. Jumladan:

Xoli labi tu didamu guftam balost in,
Ore, baloi joni mani mubtalost in.

Tarj.: Labingdagi xolingni ko‘rdimu bu balodir, dedim. Chindan ham, u men mubtalo joniga balodir.

Tarjima noshiri Ali Asg‘ar Hikmat ham tazkira hoshiyasidan uning yana bir baytini topadi.

“Ravzat us-salotin” tazkirasi noshiri Sayyid Husomiddin Roshidiy havola va izohlarida F.H.M.ning 2 g‘azali, 4 ruboiysi va bir necha baytlarini keltiradi. Jumladan:

Z-on pesh, ki yor bud, ag‘yor nabud,
G‘am dar dili man juz g‘ami dildor nabud.
On ro‘z, ki ba dog‘i oshiqi so‘xt maro,
Az olamu az odam osor nabud.

Tarj.: Yordan avval ag‘yor yo‘q edi, dilimda dildor g‘amidan bo‘lak g‘am yo‘q edi. Meni oshiqlik dog‘ida yoqqan kunda olamdan ham, odamdan ham hali asar yo‘q edi.

N. Soqiynomasida ham F.H.M.ga alohida band bag‘ishlangan:

Soqiyo, qil to‘la jomi zarkor,
Bir g‘azal boshla Faridunosor.

“Jomi zarkor”– oltindan ishlangan may qadahi. N. she’riyatida u ulug‘vorlik, martaba va shohona shon-shavkat mazmunlarini ham bildiradi. Chunki Faridun Eronning afsonaviy hukmdori nomi. Bu so‘z orqali iyhom san’ati yuzaga chiqqan. Shoir soqiyga murojaat qilib, *“bir g‘azal boshla”*shini so‘rarkan, shahzoda F.H.M.ni ko‘zda tutadi. Shuningdek, faridun so‘zining yagona, mashhur, buyuk kabi bir qator ma’nolari ham mavjud. N. soqiynomasidagi “*Nazmning nuktasi dog‘i shirin”, “Nazm adosida muvofiq yasab un, jomi may nazmi nigorandag‘a sun”* kabi misra va baytlardan ma’lumki, shahzodaning shoirlik iqtidori baland bo‘lgan.

Bobur F.H.M. juda dovyurak bo‘lib, yoyni kuchli tortishi va o‘qni yaxshi otishiga qaramay, biror-bir jangda g‘alaba nash’asini surish unga muyassar bo‘lmagani haqida xabar beradi. Som Mirzo Safaviy ham uning harbiy salohiyati va shijoatini yuksak baholaydi. “Otasi vafotidan so‘ng iqboli ro‘zgor zoli panjasiga dosh bera olmadi”. Jumladan, Dudar rabotida Shayboniyxonning ilg‘ori bo‘lgan Temur Sulton va Ubayd Sulton b-n yaxshi jang qilgan bo‘lsa ham, lekin mag‘lub bo‘lgan. Domg‘onda Muhammad Zamon mirzo b-n birga Shayboniyga asir tushadi, lekin u shahzodalarning rioyatini qilib, qo‘yib yuboradi. Keyinchalik Shoh Muhammad devona Qalotni qamal qilganda o‘zbeklarning qo‘liga tushib, halok bo‘ladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ, 10-жилдлик, 9-жилд. Т., 2011; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 2002; Соммирзо Сафавий. Тўҳфаи Сомий. – Теҳрон, 1347 (ҳ.-ш.); Ғаниева С. Фаридун Ҳусайн Мирзо. Навоийга армуғон (Мақолалар тўплами). – Т., 2004.*

S.G‘., Q.E., M.A.

FARISHTA SURUSH – N.ning “X.” dostonlari syujetida ilohiy xabarlarni, nidolarni asarning bosh qahramonlariga yetkazuvchi farishta timsoli. Bu haqda shoir asarlaridan yigirmaga yaqin tasvir va izohlarni o‘qishimiz mumkin. Jumladan, “L.M.”da shoir “dard qahramonlari”, “ishq hukmronlari”, ya’ni Layli va Majnun haqidagi “afsona”larni F.S. b-n bog‘lab, har kuni har kim eshitadigan payg‘om (xabar) emas, balki “motam ahli”, “g‘am ahli” yig‘lay-yig‘lay eshitadigan afsona mujda, xabardir, deb shunday sharhlaydi:

Kim yetti qulog‘iga xurushe
Aytur edi bu xabar Surushe

Baytda shoir xurushe – Surushe shaklida qofiya ham yaratgan. N. yigirmaga yaqin tasvirda deyarli xuddi shu shaklda (ba’zi baytlarda S.e – xurushe singari yoki “e” harfisiz) qofiyalar ijod qilgan. Sababi shoir xurush forscha so‘zining qichqirish, hayqirish, faryod, fig‘on, shovqin, g‘avg‘o ma’nolari bo‘yoqdorligiga ham ijodiy yondashganga o‘xshaydi. N.ning dostonda yozishicha, shoh Iskandarga ham F.S. bir necha marta ilohiy, ilhomiy tilaklar, hukmdorlar faoliyati b-n bog‘liq xabarlar keltiradi. M-n:

Skandarga bu mujda berdi Surush.
Ki, ey odamizod behuda ko‘sh!

Hamul erga ettingki kom aylading,
Husulida yillar xirom aylading.

N. “S.I.”ni yozishga kirishishda, o‘zida mavjud bo‘lgan himmati va ijodiy quvattiga nisbatan ikkilanib turganda, F.S.dan nido keladiki, bu shoirga g‘ayrat, ijodiy ruh, ko‘tarinki kayfiyat bag‘ishlaydi. Bu ajib, intizorlik b-n kutilgan ijodiy holatni shoir o‘zi ijod qilgan “panjamg‘a hasrat bila boqibon”, “panjamg‘a ul panjani qoqibon” kabi parallelizmlar yordamida bayon qiladi:

...Bu andisha mendin olib aqlu hush
Ki, nogoh nido qildi farrux Surush.

Ki: “Ey g‘arqai bahri ajzu niyoz,
Bo‘la olmag‘on dardingg‘a chora soz!

Etishgil qo‘pub pir dargohig‘a,
Tavajjuh qilib jomi ogohig‘a.

Aning botinidin tila yorliq,
Biyik himmatidin madadkorlig‘.

Ki,quflkim fathidur nopadid,
Anga bor eranlar duosi kalid”.

Ushbu keltirilgan voqeaband misralardan ayonki, shoirga F.S. hojating ustozing, piring Jomiy dargohidadir deydi. Ichki ruhiy quvvatni uning botinidan, himmatni esa uning zohiriy madadidan topasan, ya’ni fath kaliting Jomiy kabi eranlarning duosi b-n ochiladi, deya hayratli va shoir tayyorgarlik b-n uzoq kutgan ilohiy, irfoniy xabarni yetkazadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Навоий асарлари луғати. Туз: Шамсиев П., Иброҳимов С. – Т., 1972.*

B.R.

FARFURNUS (Furfirmus) – qadimgi yunon faylasuf olimi Porfiriy Tirskiy (mil. 233–304-yy.). Sharq ilmiy, tarixiy va badiiy asarlarida shu nom b-n yuritilgan. “S.I.” dostonida N. F.ni Iskandar b-n doimo hamroh bo‘lgan o‘n maslahatchi – donishmandlar jumlasiga kiritadi. Doston syujeti davomida u Iskandar vafoti munosabati b-n Aflotun, Suqrot, Balinoslar qatorida uning onasiga ta’ziya izhor qilib, sabr-toqatga da’vat etadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

A.A.

“FARHOD-U SHIRIN” DOSTONI TO‘G‘RISIDA” – Fitratning shu nomdagi maqolasi (“Alanga”jurnali, 1930). Maqolada Farhod va Shirin obrazlarining genezisi, adabiyotga o‘rinlashish sabablari haqida bahs yuritilgan. Olim, avvalo, shoir, dramaturg va tarjimon Xurshidning 1925-y.da yaratilgan “Farhod va Shirin” dostoni asosidagi opera librettosiga diqqat qaratadi. Xurshidning yozishicha, “Bu asar (ya’ni “Farhod va Shirin”) el og‘zida Xitoy, Arman, Eron kishilari orasida o‘tganligi so‘ylansa ham, ammo Turkistonda Xo‘jand shahri yonidagi Mirzacho‘l ustida bo‘lgan Farhod tog‘i, Shirin soyidan olg‘an taassurotimga suyalib, voqeani Turkistonda deb aytishga jasorat qilaman”. Xurshid Shirinning yurtini ham “Arman otinda qishloq” bo‘lib, xalqi ham “bari o‘zbek”dir deb ataydi. Fitratga ko‘ra, Xurshidning bu fikrlari haqiqatdan ancha uzoq. O‘zbekistonda Farhod tog‘i, Shirin soyi deb atalgan joylar mavjudligining doston genezisiga u qadar aloqasi yo‘q, aksincha, tog‘ va soy nomlari N.ning “F.Sh.” dostoni ta’sirida paydo bo‘lgan.

Doston borasidagi aksariyat mulohazalar, tahlil va talqinlarda Fitrat tarixiy manbalar va badiiy asarlarga murojaat qiladi. Jumladan, maqolada Firdavsiy “Shohnoma”siga diqqat qaratilgan. Firdavsiydan so‘ng 200 yil o‘tib xamsachilik an’anasini boshlab bergan Nizomiy Xusrav va Shirin haqidagi hikoyani badiiy tafakkur imkoniyatlaridan kelib chiqib jonlantirdi va fors tilida go‘zal bir doston yaratdi. Nizomiydan keyin xamsanavis shoirlar o‘rtasida adabiy an’ana-

ga aylanib ulgurgan Xusrav va Farhodning so‘z bellashuviga Fitrat alohida urg‘u beradi. Uning ta’kidlashicha, N. mana shu so‘z olishuvidan keyin Nizomiy izidan bormaydi. Chunki Nizomiyda bu voqeadan so‘ng Xusrav Farhodga Besutun tog‘ini qazish vazifasini topshiradi. “Navoiy dostonining borishi buni ko‘tarmaydir. Chunki, Navoiy Xusrav bilan Farhodni Madoyinda emas, Armaniyada ko‘rishtiradi. Bu yerda turib Besutun tog‘ini qozdirish munosabatsiz tushadir. Zotan, Navoiy Xusravi Parvezni yoqtirmaydi. Uni yana bir oz insofsizroq ko‘satmak Navoiyga foydalidir”, – deb yozadi olim.

Fitrat “Farhod va Shirin” dostoni tahlili davomida N.ning Nizomiy va Xusrav Dehlaviy dostonlariga o‘xshamagan alohida, o‘ziga xos bir asar yozish istagi bo‘lganini e’tirof etgan. Navoiydan keyin bu doston juda mashhur bo‘ldi, ko‘p ijodkorlar uni soddaroq til b-n yangidan ishlab chiqdilar. Shulardan biri Umar Boqiy bo‘lib, Amiri A’zam Hazrat Avazbekka bag‘ishlab “Farhod-u Shirin” dostonini yozgan. Bu asar hijriy 1328-y.da Toshkentda V.I.Ilin matbaasida toshbosma chop etilgan. Ikkinchi asar esa hijriy 1325-y.da Toshkentda “G‘ulomiya” matbaasida bosilgan bo‘lib, ham nazmda, ham nasrda yozilgan. Asarning kim tomonidan, qachon, qayerda yozilgani noma’lum. Biroq she’rlarida Mahzun taxallusi qo‘llangani u-n maqola muallif uning shu nomdagi shoir ekanini ko‘rsatadi. Fitrat Mahzunning “Farhod va Shirin” dostoni haqida alohida to‘xtaladi. Mahzun o‘z dostonida, asosan, N. ba’zi o‘rinlarda esa Nizomiy va Dehlaviy izidan borganini yozadi. Maqolada bulardan tashqari yana bir “Farhod va Shirin” dostoni borligi, keyingi davrlarda Mir Mahmud Ibni Shoh Yunus tomonidan “Nasri Xamsayi benazir” nomi b-n nasrga aylantirilgani va uning N. “X.”sidan farq qilmasligi qayd etilgan.

Farhod va Shirin haqida xalq orasida yurgan hikoyalardan biri Boysun tog‘lari atrofida paydo bo‘lgan. Bu hikoya G‘ulom Zafariy tomonidan yozib olingan. Hikoyadagi Farhod cho‘pon yigit edi. Uning boshqa asarlar syujetidan farqi shundaki, Farhod Xusrav tomonidan emas, balki Shirinning qarindoshlari bo‘lmish Boysun xo‘jalari tomonidan Boysundagi “Ketmon chopdi” tog‘ini qazish jarayonida hiyla b-n o‘ldiriladi.

Ko‘rinadiki, “Farhod va Shirin” dostoni haqidagi qarashlarining maqbul va manzur jihatlarini bugungi kun nuqtayi nazari b-n qabul qilish, asarni atroflicha tadqiq hamda tahlil qilishda Fitratning maqolasiga tayanish mumkin.

Ad.: *Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. – T., 2000; Эркинов С., Ганихонов М. Низомий Ганжавий. – T., 1992.*

M.M.

“FARHOD VA SHIRIN” KONKORDANSI – “F.Sh.” dostoni hijriy 889, mil. 1484-y.da yozilgan. Bu haqda asar xotimasida N. shunday yozadi:

Chu tarixi yilin anglay dedim tuz,
Sekkiz yuz seksan erdi dag‘i to‘qquz.

Doston 54 bob, 5834 baytdan iborat bo‘lib, boblardagi baytlar soni turlicha. Chunonchi 30 bob 127 bayt, 16 bob 99 bayt, 24 bob 104 bayt va h.k. Olimlarning hisob-kitobi bo‘yicha asarda ja’mi 14510 ta so‘z va ibora ishlatilgan. Konkordasning hajmi 796 bet, shundan 481 beti dostonda ishlatilgan so‘z va iboralar ro‘yxati, 315 beti dostonning lotin yozuvida aruzga tushirilgan matni. Tadqiqotda hamma so‘z turkumlariga oid misollar qamrab olingan. Chunonchi, sonlardan bir 525 marta, ikki – 71, uch – 29, to‘rt – 44, o‘n – 28, olti – 2, sakkiz – 2, to‘qquz jam’i 14 marta uchraydi. Ulardan to‘qquz shakli 9, to‘quz 4 marta ishlatilgan. Besh so‘zi qayd qilinmadi. Ularni shoir turli shakllarda qo‘llaydi. M-n, ikki so‘zi ikkidin, ikkimiz, ikkimizda, ikkinchi, ikkisi, ikkisin, ikkisining, ikki-uch shaklarida uchraydi:

Qazilib ikki-uch yuz qari xoro,
Qolib aning ko‘pi ham nimkoro.

Dostonda olmoshlar ko‘p: men – 75, sen – 52, u – 879, ul – 1127, bu – 525, siz – 7. Misollarni

ko‘rsatishicha 1127 marta uchrovchi “ul”ning bir qismi vazndagi saktalikni bartaraf etish u-n ishlatilgan:

*Tulu etti chu **ul** raxshanda xurshid,*
Adam shomig‘a bo‘ldi shomi jovid.

Sifat turkumidagi qora – 45, oq – 6, qizil – 12, sarig‘ – 3, yashil 11 marta uchraydi. Qora so‘zini ko‘p ishlatilishiga sabab uning semantikasidagi kuchli; dahshatli; yovuz; zo‘r; baxtsiz, yomon, siyoh kabi ko‘p ma’noligi b-n bog‘liq:

*Yasab ko‘k-u **qora** birla libosin*
To‘kib ashk ayladi zohir azasin.

Sipehr o‘rtab jahoni benavoni
*Kuli birla **qora** aylab havoni.*

Falak yotib oyog‘ ilgin uzotib,
*Eshak yanglig‘ **qora** balchiqqa botib.*

Dostonda harakat ko‘p bo‘lgani u-n fe’llar ko‘p uchraydi. Garchi ular infinitiv ya’ni *-moq,* va *-mak* shaklida kam uchrasa-da: aylamoq – 7, aytmoq – 7, ochmoq – 10, olmoq – 8, bormoq – 2, qilmoq – 6, urmoq – 13, etmak – 4, qo‘ymoq – 4, shoir vazn, qofiya talabidan kelib chiqib ularni turli shakllarda qo‘llaydi.

Chunonchi, qilmoq fe’li qilib shaklida – 312, qildi – 257, qilg‘ay – 46, qilg‘il – 17, qildilar – 24, qildim – 10, qilding – 12, qilg‘ach – 15, qilg‘an – 26, qilma – 11, qilmadi – 5, qilmas – 5, qilmasam – 2, qilmay – 22, qilmish – 19, qilsa – 55, qilsam – 14, qilsang – 14, qilsun – 16, qilur – 35, qilurg‘a – 7, qilurlar – 3.

Demak, 13 marta ishlatilgani holda *dedi* shakli 171 marta qo‘llangan. Shundan 48 tasi dostonning 41 bobida Xisrav va Farhod orasidagi savol-javobda uchraydi:

Dedi: Qaydin sen, ey majnuni gumroh?
Dedi: Majnun vatanidin qayda ogoh

Dedi: nedur sanga olamda pesha?
Dedi: ishq ichra majnunluq hamisha.

Dedi: bu ishdin o‘lmas kasb ro‘zi,
Dedi: kasb o‘lsa basdur ishq so‘zi.

Dedikim: ishq o‘tidin ne fasona!
Dedi: kuymay kishi topmas nishona.

Dedikim: kuymagingni ayla ma’lum!
Dedi: andin erur joh ahli mahrum!

Ushbu fe’lni shoir yana quyidagi shakllarda qo‘llaydi: dedilar – 9, dedim – 8, deding – 4, degan – 6, degaymen – 7, degil – 23, demay – 28, der – 9, derlar – 8, desang – 7, dey – 4. Dostonda ushbu fe’lning oddiy unli shakli alohida, cho‘ziq unli varianti alohida berilgan: dema – 61, dema – 8, desa – 11, desa – 1. Bo‘lmoq fe’li 31 marta ishlatilgani holda, bo‘ldi – 264, bo‘ldilar – 13, bo‘ldim – 1, bo‘lg‘ay – 152, bo‘lg‘ach – 1, bo‘lg‘an – 22, bo‘lgay – 1, bo‘lg‘asen – 2, bo‘lg‘aymen – 3, bo‘lg‘aymu – 1, bo‘lg‘il – 5, bo‘lg‘uncha – 1, bo‘lg‘usi – 7, bo‘lmay – 1, bo‘lmog‘ – 2, bo‘lmasa –8, bo‘lmish – 33, bo‘lsa – 74, bo‘lub – 392, bo‘lur – 59, bo‘lurmu – 16 shakllarida ishlatilgan. Urmoq fe’li 13 urmak – 1 marta ularning turli shakllari esa ko‘p ishlatilgan: urmish – 1, ursa – 10, ursam – 1, ursang-1, urub – 45, urubon – 1, urdi – 36, urdilar – 3, urgay – 1, urdum – 1, urar – 2, urarsen – 2. Ushbu misollar tadqiqotchilarga fe’l stilistikasi bo‘yicha qimmatli ma’lumotlar beradi.

Dostonda so‘zlardan tashqari iboralar ham ko‘p uchraydi. Quyidagi baytda taajjublanmoq ma’nosida bosh irg‘atmoq va ilgini qoqmoq iboralari ishlatilgan:

Taajjub birla oning sori boqib,
Boshii irg‘otib, ilgini qoqib.

Mumtoz o‘zbek tilida sabr qilmoq, chidamoq ma’nolarida bag‘riga tish berkitmoq iborasi ishlatilgan. Ushbu iborani qofiyaga moslashtirish u-n shoir “bag‘rig‘a mahkam qilib tish” shaklida ishlatadi:

Chu fahm ettiki, bormish ilgidin ish,
Yiqilmay bag‘rig‘a mahkam qilib tish.

Shoir o‘z oyog‘i b-n keldi iborasini ham qofiya talabi b-n o‘z ayog‘i birla kelmish shaklida qo‘llaydi:

Balo ichra farog‘i birla kelmish,
Tuzoqqa o‘z oyog‘i birla kelmish.

N. forsiy iboralarni ikki xil ishlatadi. Bir qismini fors tilidagidek aynan:

Jamolidin ko‘rungach farri shohi,
Bu faydin yorudi mah to bamohi.

Ikkinchi xilini tarjima qilib ishlatadi. Yuqoridagi misolda hammayoq ma’nosida mah to bamohi iborasi tarjimasiz ishlatilgan. Konkordansda arabiy va forsiy iboralar ham qayd qilingan: aynul hayot (30/79), bahrun najot (34/95), nuran alo nur (50 bob), bog‘i nav (11/31), bihishti soniy (11/31), ziji Ko‘ragoniy (53/38).

Shoir so‘z variantlaridan mahorat b-n foydalanadi. Bu qofiya yoki vazn b-n bog‘liq. Bila bog‘lovchisi 166 marta birla 116, ila 15 marta ishlatilgan. Ikavla – 1, ikovlan – 3 marta uchraydi. Dostonda uchov va uchovla so‘zlari ham variant sifatida ishlatilgan. Birinchisi to‘qqizinchi bob 98 baytda, ikkinchisi 25 bobning 50 baytida uchraydi.

Dostondagi misollar shoir so‘zlarni turli shevalardan olib ishlatganligini ko‘rsatadi. *Urgay* fe’li bir shevada ishlatilgan bo‘lsa:

Ki, chekkay tig‘u urgay ishq lofin,
Musallamkim tutar mundoq gazofin.

Urg‘ay boshqa shevada ishlatilganligi aniq:

Degaylarkim borib devona sari,
Nuhusat o‘tidin urg‘ay sharori.

Birinchisi dostonda bir, ikkinchisi besh marta uchraydi. O‘rt va o‘t so‘zlari haqida ham shuni aytish mumkin: o‘t-69, o‘rt-4 marta ishlatilgan:

Ne uyqudurki yetti ko‘kka huyum,
Jahong‘a o‘rt soldi guftu-go‘yum.
Yetib gardung‘a un sinanmaging yo‘q
Tushub olamg‘a o‘t tebranmaging yo‘q.

“F.Sh.”Ushbu konkordans bo‘yicha bir mulohaza aytish zarur. Tadqiqotda omonimlar ko‘rsatilmagan. Chunonchi yetti va yuz so‘zlari omonim sifatida ajratib berilmagan. 47 marta uchrovchi yetti so‘zidan qanchasi fe’l (yetmoq), qanchasi son ekanligi ko‘rsatilmagan. Xuddi shuningdek, 316 marta uchrovchi yuz so‘zlaridan qanchasi aft, bashara, qanchasi son ekanligi qayd qilinmagan. Konkordans tuzuvchilar bu so‘zlar ishtirokidagi baytlarni o‘qib, ularni omonim shaklida joylashtirishlari lozim edi.

Umuman, konkordas “F.Sh.” dostonining uslubi haqida tadqiqotchilarga yangi-yangi ma’lumotlar beradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011.*

E.U.

“FARHOD VA SHIRIN”NING RUS TILIGA TARJIMASI – ushbu dostonning rus tiliga birinchi tarjimasi L.M. Penkovskiy tomonidan amalga oshirilgan. Bu qisqartirilgan tarjima bo‘lib, 1940-y.da nashr etilgan edi. Keyinchalik ushbu tarjima besh marta qayta nashr qilindi, shuningdek, undan parchalar ham turli to‘plamlarda chop etildi. (Л.М. Пеньковский. Избранные стихотворные переводы. – М., 1959; Сквозь века и годы. – Т., 1960; Алишер Навои. Стихотворения и поэмы. М-Л., 1965).

N. asarlarining rus tilidagi o‘n jildligi nashrga tayyorlanishi munosabati b-n dostonning nisbatan to‘liqroq tarjimasi yuzaga keldi va u ham L.M. Penkovskiy mehnatining mahsulidir. Bunda u birinchi tarjima davomida orttirgan tajribasidan foydalangan holda qunt va diqqat b-n ishlab, N. asarlarining mazmunini, o‘ziga xosligi va poetik xususiyatlarini yanada to‘laroq aks ettirib berishga muvaffaq bo‘ldi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, tarjimon, bir tomondan, asliyat mazmuni va shaklidan uzoqlashmaslikka, uni buzmaslikka intiladi, ikkinchi tomondan, asli-

yatga yopishib ham olmaydi, uni aynan, so‘zma-so‘z o‘girish yo‘lidan bormaydi. Har tomonlama o‘ylab, muayyan bir me’yorni saqlagan holda ishlagani tufayli u dostonning muvaffaqiyatli tarjimasini yarata olgan. Tarjimonning mahorati va tarjima saviyasi haqida misol tariqasida keltirilgan ushbu parchalar orqali tasavvur hosil qilish mumkin:

Asliyatda:

Dedi, qaydinsen, ey Majnuni gumrah?
Dedi, Majnun vatandin qayda ogah?

Dedi, nedur senga olamda pesha?
Dedi ishq ichra majnunliq hamesha.

Dedi, bu ishdin o‘lmas kasb ro‘zi,
Dedi, kasb o‘lsa basdur ishq so‘zi.

Dedi: ishq o‘tidin so‘yla fasona,
Dedi: kishi kuymay topmas nishona.

Dedi: kuymagingni ayla ma’lum,
Dedi: ondin erur joh ahli mahrum.

Dedi: qayu chog‘din o‘lding ishqi aro mast,
Dedi: jon ermas erdi tang‘a payvast.

Tarjimada:

Кто ты, безумец, и родился где?
Что для безумца родина? Нигде!

Каким владеешь в жизни ремеслом?
Горением любви, враждой со злом.

Кто же ремеслом таким бывает сыт?
Горящий сыт огнем – любовь гласит.

Не сказка ли твоя любовь навек?
То знает лишь горящий человек.

А в чем суть горенья твоего?
Порфироносец не поймает его.

Давно ль твое горенье началось?
Когда душа и тело были врозь.

Ma’lumki, N. o‘z qahramonlarining ruhiy xolati va kechinmalarini dostonda beqiyos mahorat b-n tasvirlagan. Bu hol, xususan, asarning 45- va 46-boblarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Shirinning Farhodga, Farhodning Shiringa yozgan maktublarini o‘z ichiga olgan ushbu boblarda muallif doston bosh qahramonlarining tuyg‘ularini, emotsional holatini ularning o‘z so‘zlari b-n o‘quvchiga yetkazadi va bu parchalar asarning badiiy yuksak, benihoyat ta’sirli qismlarini tashkil etadi. Dostonning ana shu o‘rinlari L.M. Penkovskiy tarjimasida ham ta’sirli va ravon chiqqanini ko‘ramiz. Shirinning Farhodning yonida bo‘lish, unga butun mehr va muhabbatini bag‘ishlashi haqidagi orzu-istaklari ifodasi bo‘lgan quyidagi parcha ham tarjimonning mahoratini namoyon etadi:

О, если б судьба, чьё ремесло-
Творить насилье, сеять в мире зло.

Моей горячей тронуто мольбой,
Не разлучила бы меня с тобой!

Была бы тебе я спутница и друг,
Всегда бы услаждала твой досуг;

Как солнце озаряла бы твой день,
Была бы ночью при тебе как тень;

Ты б ногу занозил колючкой злой,
Ресничкой извлекло бы как иглой;

Я волосами бы подметала б сор,
Чтоб и соринки твой не встретил взор;

А пылью чтоб тебя не огорчить,
Могла б слезами землю омочить.

Lekin, afsuski, bu tarjima ham to‘liq emas. Unda dostonning bir qator boblari tushirib qoldirilgan. Yana bir qator boblar qisqartirilib o‘gi-

rilgan. Dostonning muqaddima boblari (hamd, na't, me'rojga, Husayn Boyqaroga bag'ishlangan va yana ayrim boblar) asarning g'oyaviy-badiy mazmunida muhim o'rin tutishiga qaramay tushirib qoldirilgan. Jami bo'lib 13 ta bob to'laligicha yoki qisman qisqartirilgan.

Bugunga kelib, N. asarlarining rus tiliga to'liq tarjimalarini yaratish zarurati yuzaga keldi. Bunga zamin yaratish maqsadida adabiyotshunos Q.Ergashev "F.Sh." dostonining tarjimada qisqartirilgan yoki to'laligicha tashlab ketilgan boblarining narsiy tarjimasini amalga oshirdi. Q.Ergashev tarjimasi asosida asarning ukrain tilidagi to'liq tarjimasi yaratildi. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi a'zosi L.Vasilyev o'sha boblarning rus tiliga she'riy tarjimasini amalga oshirdi.

Ad.: *Алишер Навои. Стихотворения и поэмы. М-Л., 1965; Л.М Пеньковский. Избранные стихотворные переводы. – М., 1959; Алишер Навои. Сочинения в 10 томах. Т. 4. – Т., 1968.*

Q.E.

FAROG'IY – N. asarlariga lug'at tuzgan olim. Mahdixon "Maboni ul-lug'at"da shoir asarlaridagi so'zlarni izohlar ekan, uning asarlariga munosabat bildirgan. Hayoti va asarlari haqida ma'lumot saqlanmagan.

Ad.: *Умаров Э. Эски ёзув луғатлари. – Т., 1992; Мирзо Маҳдихон. Мабони ул-луғат. – Т., 2008.*

E.U.

FARRUX I – "S.S." dostonida shanba kuni qora qasrda 1-iqlimdan keltirilgan musofir hikoyati qahramoni. Hind elida 40 yil podshohlik qilgan Jasratning o'g'li, olam elini oliyjanobligi b-n bandi qilguvchi hind shahzodasi. N. uning ta'rifini dostonda shunday keltiradi:

Barcha donish aro yagona kelib,
Husn aro nodiri zamona kelib.

Otasi ko'ngliga surur andin,
Hind elining ko'ziga nur andin;

Bori ilm-u kamol aro mohir,
Zotidin yuz kamol o'lub zohir.

Zuhd-u taqvo kelib shiori aning,
Bo'lubon poklik hisori aning.

Jasrat 80 yoshga yetganda ham F., toj-u taxtni olishni, uylanishni istamas edi. Ammo bir kecha ruhoniy bir tushida qora libosga burkangan bir sohibjamolni ko'radi. "Bu yer Quddusdir" degan ovozdan uyg'onib ketadi. Xayoliy pari ishqida yonib kuygach, otasidan so'rab safarga otlanadi. U zamonlarda haj qilmoqchi bo'lganlar Quddusni tavof etardi. F. ham bu yerda uzoq qolib ketadi va tushida bir nuroniy "Halab bor" deydi. Halab ko'chalarida tushidagi yorni ko'rib qolib, butunlay parishon bo'ladi, hamrohlariga xat qoldirib, o'zi shohlik libosidan voz kechib, bir qora palosni ustiga yopadi. Sheriklari uyg'onib, F.ni izlaydilar, ammo topa olmay yurtlariga qaytadilar. F. esa o'zga yurtda shohlikdan gadolik maqomiga tushadi. Sarson sargardon F.ga shu yurtning saxovatda tengsiz Axiy nomli xojasi uchraydi. Axiy uni uyiga olib ketadi, dardini bilish maqsadida bazm uyushtirib, F.ni mast qiladi. Natijada, uning sevgani o'zining suyukli xotini Gulchehra ekani ma'lum bo'ladi. Taloq aytib, F.ga nikohlaydi, yodgorlik u-n Axiy qora palosni tilaydi. Ammo barcha haqiqatlarni bilgach, F. qizga:

Dedi: "Dardimg'a gar davo ko'rmon,
Buyla zulmi sanga ravo ko'rmon.

Aylabon lutf behisob asru,
Qildi bizni Axiy xarob asru.

Gar anga bu qadar muruvvat bor,
Bizda ham shammai futuvvat bor.

Shukrkim etti lutfi yazdoniy,
Qolmadi zulmi nafsi zulmoniy.

Sen ham emdi shukufta dil bo‘lg‘il!
Manga iki jahon singil bo‘lg‘il” –

Yurtiga kelganda otasi vafot etgan edi. Valiahd F. taxtga o‘tiradi. Va g‘am-hasratda Hind eliga safar qilgan Axiy b-n topishadi va shoh F. uni o‘ziga doimiy hamroh qiladi. Ammo Axiy qora palosni tashlamas edi:

Chunki shah xil’ati qaro bo‘ldi,
Qora kiymak ulus aro bo‘ldi.
Qora rang elga toji torakdur,
Kim bu rang ichradur, muborakdur.

F. va Axiy hikoyati orqali N. nafsni yengishda ishq va himmatning o‘rnini ko‘rsatadi. Tasavvufdagi muruvvat va futuvvat tushunchalariga badiiy izoh beriladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Сирожиддинов Ш., Юсупова Д., Давлатов О. Навоийшунослик. Дарслик. – Т., 2018; Асадов М. Ўзбек адабиёти тарихи ва янги ўзбек адабиёти (Алишер Навоий ҳаёти ва ижоди). Ўқув қўлланма. – Т., 2023.*

Z.R.

FARRUX II (f.) – go‘zal, ochiq, yuzli, yoqimli, shod, qutlug‘, baxtiyor ma’nolarida keluvchi so‘z. N. ijodida faol qo‘llangan. M-n:

Erur barot ila bayram ul oyg‘a zulf ila rux.
Xush ulki tun-kuni bo‘lg‘ay bu ikkidin farrux.

N. she’riyatida *farruxoyin (baxtiyor qiluvchi), farruxfol (xushtoli’, kelajagi porloq), nofarrux (nomuborak), farrux jamol, farrux diydor (go‘zal, chiroyli yuzli), farruxpay (sharafli, qutlug‘ qadam)* kabi farrux asosida paydo bo‘lgan so‘z va birikmalar ham ko‘p uchraydi:

Hajr aro, ey Hizri farrux pay, qo‘lum tutkim erur
Po‘ya urmog‘din bu vodiy ichra bag‘rim tolg‘udek.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011.*

Z.R.

“FARHANGI HAZRATI MIR ALISHER” – N.ning “X.M.” asari u-n tuzilgan lug‘at. Besh yuz yil davomida N. asarlari turli maqsadlarda, turli hajmlarda ko‘chirib kelindi. Adabiyot muxlislari shoirning o‘zlariga yoqqan she’rlaridan terma devon tuzgan bo‘lsalar, boshqalar uning merosidan ko‘proq bahramand bo‘lish maqsadida devon, dostonlarni ko‘chirib, ulardan ma’naviy ozuqa olgan. Ba’zi adabiyot ixlosmandlari esa ko‘chirib olingan g‘azallarni to‘g‘ri tushunish u-n ulardagi qiyin so‘zlardan maxsus lug‘atlar tuzgan. Ana shunday lug‘atlardan biri xivalik Oxund ibn Mir Hasan Chahorgo‘yidir. U bir necha yil mashaqqat chekib, N.ning shoh asari “X.M.”ni ko‘chirib tugatgach, undagi g‘azallarni o‘qib tushunish u-n devon oxiriga bir kichik lug‘at ilova qilgan. U devonning to‘qqiz betiga, ya’ni 392-401 sahifalariga chizilgan jadvallar ichiga joylashtirilgan. Har bir betdagi jadval qirq sakkiz katakdan iborat bo‘lib, so‘z va uning ma’nolari ana shu kataklar ichiga yozilgan.

Lug‘atga “Farhangi hazrati Mir Alisher mullaqab ba al Navoiy rahmatullohi alayha” deb nom qo‘yilgan. Lug‘at oxirida quyidagi yozuv bor: “Rassamahu faqir-ul-haqir ibn Mir Hasan al Chahorgo‘yi g‘afar-al-huma va satara uyubahumo fi shahri jumodis soniy 1265 yozdi – faqir-ul-haqir Oxund ibn Mir Hasan Chahorgo‘yi Xudo ularning ikkalasini ham (gunohini) kechirsin va ularning ikkalovini ham ayblarini berkitsin” – (aprel 1849-y). Bu degani ushbu lug‘at 1849-y. yozib tugallangan.

Lug‘at chiroyli nasta’liq xatida yozilgan. Har bir harf b-n boshlanuvchi so‘zlar maxsus sarlavhalar b-n ajratilgan: bob-ul-to – “t” harfidagi so‘zlar; bob-ul-vov – “vov” harfidagi so‘zlar; bob-ul-g‘ayn – “g‘” harfidagi so‘zlar...

Lug‘at arab-fors alifbosi bo‘yicha tuzilgan bo‘lib, unda jami yetti yuz so‘z izohlangan. Har bir harfga ma’lum miqdorda so‘zlar keltirilgan. Oxund ibn Chahorgo‘yi so‘zlarni izohlashda

ularning qaysi tilga oidligiga qarab emas, balki qanchalik xalqqa tushunarli ekanligiga e'tibor beradi. Ayrim arabcha, forscha so‘zlar o‘zbekcha izohlangan: *ab–ota, ahmar–qizil, tul–uzun, hisor–qo‘rg‘on*.

Ba'zi arabiy-forsiy so‘zlar keng xalq ommasiga tanish, tushunarli shu xil kalimalari b-n tushuntirib berilgan: *avroq–varaqlar, ashkol–shakl, arqom–raqam*.

Lug‘atning o‘ziga xos xususiyatidan kelib chiqib lug‘atshunos so‘zlarning, asosan, bir ma'nosini beradi: *ayn–ko‘z, behbud–xo‘bluq, adam–yo‘qluq, tavsan–ot, turob–xok*. So‘zlar lo‘nda, ixcham izohlangan: *raxsh–ot, miftoh–ochqu, moviy–ko‘k, shams–oftob, rif'at–baland*. Ayrim so‘zlarning ma'nosi tavsifiy yo‘l b-n ochib berilgan: *madhuz raqam qilg‘on, soyir–sayr qilg‘uchi, sado'–bosh og‘rig‘i*.

Ushbu mo‘jaz lug‘at ikki jihati b-n ahamiyatli. Bir tomondan u ota-bobolarimizning ilm-ma'rifatga qanchalik intilganligini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan, oddiy bir adabiyot ixlosmandining shunchalik hafsala b-n lug‘at tuzganligi, inqilobgacha o‘zbek xalqining atigi ikki foizi savodli edi, degan gaplarning noto‘g‘ri ekanligini ko‘rsatuvchi hujjat sifatida diqqatga sazovor.

Maqola oxirida o‘quvchilar lug‘atni aniqroq tasavvur qilishlari u-n ayrim boblardan namunalar keltiramiz. **Bob ul-jim – "jim" harfidagi so‘zlar**: *jali-ravshan, jamil-nekro‘y, jovid–hamisha, jumrat–husni xo‘b, joda yo‘l, jayron-kiyik, javod–sahro, jild–po‘st, jaras–qo‘ng‘irog‘u*; **bob ul-ho –"h" harfidagi so‘zlar**: *hadaya–hadya, hanjar–hamvor, hola–oy qo‘tonlong‘on, hadaf–nishon, harza havon–behuda*; **bob ul-yoy – "yoy" harfidagi so‘zlar**: *yaditulo–qo‘li uzun, yolin–o‘t, yag‘mo–toroj, yusr–oson, yada–behuda, ya's–noumid, yum–kun, yurun–yamog‘, yog‘du–yoruq, yadi bayzo–qo‘li nur, yax–muz*.

Ad.: *Алишер Навоий. ТАТ. 10 жилдлик, 1-10-жилдлар. – Т., 2011.*

E.U.

FASIH RUMIY – Temuriylar davrida yashagan shoir va olim. U she'riyat sohasida yetuk bo‘lish b-n birga ko‘p fanlarni ham chuqur egallagan. Shohrux mirzoning o‘g‘li Jo‘gi mirzo (1400–1445) saroyida xizmat qilgan. Hirotda va biroz vaqt Balxda yashagan. Keyinchalik Hirotga qaytib kelgan va shu yerda vafot etgan.

N. F.R. haqida "M.N."ning ikkinchi majlisida ma'lumot beradi. Bilamizki, N. ushbu majlisga bolalik va yigitlik paytida ko‘rgan shoirlarni kiritgan. Demak, u F.R. b-n uchrashgan, tanish bo‘lgan. Lekin bu uchrashuv qachon va qayerda yuz bergani haqida N. hech narsa demaydi. F.R.ning ijodiy merosi g‘azal, qasida va masnaviy janrlarida yaratilgan. Shoir Xoja Salmonning masnu' qasidasiga tatabbu' yozgan, shuningdek, Shayx Nizomiyning "Maxzan ul-asror" dostoniga javob bitgan. "M.N."da uning fors tilida bitilgan quyidagi bayti keltirilgan:

Har nafas k – az tu kase bishnavad,
Beshak az o‘ hamnafase bishnavad.

Tarj.: Har nafas sendan bir kishi eshitgan so‘zni, shubhasiz, uning xamnafasi ham eshitadi.

Ayrim tadqiqotchilarda F.R. "Mujmali Fasihiy "nomli tarixiy asar muallifi Fasih Ahmad ibn Jaloliddin Muhammad al-Xavofiy (1375–1443) b-n bitta shaxs sifatida ko‘rsatiladi. Lekin mazkur asar muallifining nisbasi Rumiy emas, Xavofiy. Manbalarda uning Shohrux Sulton va Boysunqur mirzo devonlarida ishlagani qayd etiladi. N. o‘zi zikr etgan F.R.ning Jo‘gi Mirzo xizmatida bo‘lganini aytadi. Shuningdek, u F.R.ning tarixchi bo‘lgani yoki tarixiy asar yozgani haqida ham hech narsa demagan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик. 9-жилд. – Т., 2011; Муджмал-и Фасихи. – Т., 1980.*

Q.E.

FATH ALI (Fath Ali ibn Kalbali ibn Murshidquli ibn Fathali Qojor Qazviniy (XIX asr, Eron) – N. asarlariga tuzilgan mashhur "Lug‘ati

atrokiya”ning muallifi. F.A.ning tarjimayi holiga oid ma’lumotlar so‘zlik muqaddimasida muallifning o‘zi tomonidan keltirilgan. Bu ma’lumotlarni A.A.Samoylovich ham lug‘atga bag‘ishlab yozgan maqolasida keltirgan. F.A. turkiy Qojor qabilasining Qora quyunli toifasidan bo‘lib, tug‘ilib o‘sgan yeri Qazvin shahri. Safaviylar Qojor qabilasini bir vaqtlar Ganja shahridan Qazvinga ko‘chirgan edi. Fath Alishoh hukmronligi (1796-1834) vaqtida F.A. Ozarbayjonga yuboriladi. O‘zining aytishicha, Yerivon (Yerevan)da 17 yil davomida fidokorona xizmat qiladi. Xizmatdan bo‘sh vaqtlarida chig‘atoy tili b-n shug‘ullanadi. N. asarlarini mutolaa qiladi. Chig‘atoy tilini o‘rganishida dastlab “Hujjat” taxallusli shoir Mirzo Muhammad Yerivoniy rahbarlik qiladi. F.A. shoir Hujjatni “Lug‘ati atrokiya”ning bir necha yerida tilga oladi va uning she’rlaridan namunalar ham keltiradi. F.A. Yerivondan qaytishi b-n, shoh buyrug‘iga ko‘ra Xuroson voliysi Ali Naqiy Mirzo Rukniddavla huzuriga Qazvindagi Qojor qabilasidan yig‘ilgan ikki yuz chamasi yigitga yuzboshi sifatida yuboriladi. Xurosonda ikki yil davomida xizmat qilish jarayonida u N. asarlari va turk tilining chuqur bilimdoni, Jaloyir va Qilot qabilalarining oqsoqoli Yalangto‘shxon b-n yaqin muloqotda bo‘ladi va mazkur ikki yilning ko‘proq qismini shu kishining qo‘lida tahsil olish b-n o‘tkazadi. F.A. b-n birga “Nashot” taxallusida ijod qilgan nozik tab’ va yaxshi zehnli (lekin F.A. ning aytishicha, uning ba’zi she’rlari o‘rtamiyona bo‘lgan) shoir Mirza Abdulvahhob Isfahoniy Mu’tamiduddavla ham bor edi. Bu shoir o‘zining 70 yoshi va qarilik zaifligiga qaramay N. ijodiga zo‘r qiziqar va eski o‘zbek tilini bilmasligini o‘zi u-n katta nuqson deb hisoblardi. Nashot ham Yalangto‘shxonning turkiy tilga oid bilimlaridan foydalanar va u yo‘q paytlarida “Lug‘ati atrokiya”ning muallifini o‘z huzuriga chorlab, eski o‘zbek tilini o‘rganishga qunt qilardi. Shu orada F.A. turli vazifalar b-n Oxol teginlari hamda Marv sariq va solorlari orasida bo‘ladi; ularning ulamo va savodxonlaridan eski o‘zbek so‘zlari va ma’nolarini g‘ayrat b-n o‘rganadi. 1858-y.gacha Eronning turli viloyatlarida xizmat ishlari b-n band bo‘lib, vaqtining nihoyatda ziq bo‘lishiga qaramay, eski o‘zbek tilida yozilgan asarlarni mutolaa qilish va til o‘rganishga ham fursat topishga harakat qiladi.

Tehrondaligi paytida, hatto, tillar o‘rganishning zo‘r havaskori, XIX asr ulkan Eron shoiri Mirzo Habibulloh Kosoniyga eski o‘zbek tili saboqlarini beradi. Nihoyat, xuddi shu 1858-y. shoh Nasiriddin N. asarlarini mutolaa qilishga mayl qilayotgani F.A.ga ma’lum bo‘ladi. Natijada, turli yuqori mansab egalarining maslahati b-n u avom-u xosga tushunarli va istifoda qilishda qulay eski o‘zbekcha-forscha lug‘at tuzishga kirishadi. To‘rt yil davomida xizmat ishlaridan forig‘ chog‘larida so‘zlik yaratish b-n qattiq shug‘ullanadi. Nihoyat, 1862-y. fevral oyida ancha keksaygan va turli-tuman qiyinchiliklarga duch kelgan kezida Xuroson vaziri Mirzo Muhammad Astrobodiy yordami va qo‘llab -quvvatlashi tufayli asarni tugatib, unga “Lug‘ati atrokiya” deb nom qo‘yadi.

Ad.: *Хасанов Б. Принципы составления рукописных словарей к произведениям Навои: Автореф. дисс. ... д-ра. филол. наук. – Ташкент, 1989; Умаров Э. “Бадайи ал-лугат” и “Санглах” как лексикографические памятники и источники изучения староузбекского языка: Автореф. дисс. ... д-ра. филол. наук. – Т., 1989.; Namiq M. Feth Ali Şah Kaçar’in Çağatay türkçesiyle yazilmiş bir yarliği üzerine Yıl 2019, Cilt 14, Sayı 1, 83 – 109. Fethali Kaçar’ın Çağatay Türkçesi Sözlüğü (2 Cilt Takım); Rahimi, F. (2018). “Çağatay Türkçesi Sözlükleri Bibliyografyası”, TEKE (Uluslararası Türkçe Edebiyat Kültür Eğitim Dergisi), Sayı: 7/1.*

E.U., S.O‘.

FAXRIDDIN IROQIY (taxallusi; to‘liq ismi: Shayx Faxriddin Ibrohim ibn Buzurgmehr ibn Abdulg‘affor Javoliqiy Hamadoniy (1213, Hamadon – 1289, Damashq) – tasavvuf olimi, mutasavvif shoir. Yoshligidan Qur’onni yod olgan va butun shahar ahli uning muxlisi edi. 17 yoshida Hamadon madrasalarida dars bergan. Keyin tasavvuf yo‘liga kirgan va qalandarlarga

qo‘shilib, Mo‘ltonga borgan. Shayx Bahouddin Zikriyoga murid tushib, uning qo‘lida xirqa kiygan. Shayx unga o‘z qizini nikohlab berib, o‘rniga xalifa etib tayinlagan. Makka ziyoratiga borib, Bag‘dodda Shahobiddin Suhravardiy suhbatiga etishgan. Keyin Rumga borib, Sadriddin Ko‘niyaviy xizmatiga kiradi va shu yerda “Lama’ot” (“Shu’lalar”) nomli mashhur asarini yaratadi. “Lama’ot” − Shayx Ahmad G‘azzoliyning “Assavoneh fi maoniy ul-ishq” (“Ishq ma’nolari va voqealari”) hamda shayx Muhyiddin ibn Arabiyning “Fusus ul-hikam” (“Hikmatlar gavhari”) asari ta’sirida yozilgan bo‘lib, 28 lama’ga bo‘lingan. Ularning har birida ishq jarayoni va oshiq holatining muayyan ko‘rinishi aks etgan bo‘lib, ular ishq yo‘lida oshiq bosib o‘tadigan maqomlar bayonidan iborat. Asarning tili og‘ir, uslubi murakkab, ramzlarga boy bo‘lgani u-n unga ko‘plab sharhlar yozilgan. Ular orasida eng mukammali Abdurahmon Jomiyning 1481-y.da N. iltimosi b-n yozilgan “Ashi’at ul-Lama’ot” (“Yorqin shu’lalar”) sharhi hisoblanadi. Bu haqda N. “X.M.”da “alar “Ashi’at ul-Lama’ot”ki, bu toifa kutub va rasoli arosida ma’lum emaski, hargiz andoq sharh qalamga kelmish bo‘lg‘ay, bunyod qildilar” deb lutf etadi. “N.M.”da yozilishicha, bundan maqsad shuki, to muxlislar “mutolaa qilib, maoniysidin fayz olg‘aylar va oning nafosatin bu ilmda bilg‘aylar”. Ustozi huzurida undan saboq olgan shoir yana uning shu’lasi porloqligidan xira ko‘zlarga ochiqlik, quyoshining nuridan qorong‘i ko‘ngillarga yorug‘lik yetishadi, deb ta’riflaydi. Bu bejiz emas. Tasavvufshunoslar uni “Lama’ot”ning eng mukammal va mashhur sharhi deb hisoblaydilar. Bu sharh N. dunyoqarashiga kuchli ta’sir ko‘rsatibgina qolmay, Xuroson va Movarounnahr zaminida shakllangan tasavvufga yangi nafas bag‘ishladi va naqshbandiyaning keyingi rivoji, umuman, falsafiy-tasavvufiy tafakkur taraqqiyotida yorqin iz qoldirdi. N. temuriyzodalardan Abulqosim Boburning ham tasavvufga oid asarlardan F.I.ning “Lama’ot”i b-n Mahmud Shabustariyning “Gulshani roz”iga muhabbati ayrichaligi haqida “M.N.” tazkirasida ma’lumot berib o‘tadi.

“M.Q.”da ishqning darajalarini avom sevgisi, xoslar muhabbati va siddiqlar ishqi deb 3 qismga ajratar ekan, F.I.ni 2-qismga kiritadi: “Yana so‘zi pok-u, ko‘zi pok ishq ahlida mujarrad va munfarid va bebok bu toifaning benaziru adil va toqi faxr ul-millatu vad-din Shayx Iroqiydurkim, ishq sifotig‘a muttasifdur va “Lamaot”i pok maoniy va tarokibig‘a muttasifdur”.

“H.A.” dostonining ishqning maqsad-mohiyati, mazmun-mundarijasi har tomonlama keng va chuqur yoritilgan ishq ta’rifidagi 9-maqolatiga ilova sifatida mashhur tariqat shayxi Shayx Iroqiyning majoziy ishqi haqiqiy ishqqa badal bo‘lgani haqidagi hikoyat keltiriladi.

F.I. umrining oxirida avval Misr, keyin Shomga borib, Damashqda yashab qoladi. Mo‘ltondan o‘g‘li Kabiriddin kelib, uning xizmatida bo‘ladi. Shayx Muhyiddin Arabiy qabri yoniga dafn qilingan.

5872 bayt hajmidagi qasida, g‘azal va ruboiylardan iborat devoni yetib kelgan. Bundan tashqari, Hakim Sanoiyning “Hadiqat ul-haqiqat” masnaviysi yo‘lida 1062 baytli “Ushshoqnoma” (“Oshiqnoma”) manzumasini yaratgan.

E.Ochilov 100 dan ziyod ruboiysini tarjima qilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамсат ул-мутаҳаййирин. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Девони Фахриддин Ироқий. Муқаддимаи Саид Нафисий. Чопу севвум. − Теҳрон, 1984; Абдураҳмон Жомий. Ашиъат ул-Ламаъот” \\ Абдураҳмон Жомий (Тўплам). – Т., 1997; Фахриддин Ироқий. Рубоийлар \\ Донишмандлар туҳфаси. – Т., 2009; Фахриддин Ироқий. Рубоийлар \\ Минг бир рубоий. – Т., 2009; Абдураҳмон Жомий. Нафаҳот ул-унс \\ Осор. Дар 8 жилд. Жилд 8. – Душанбе, 1990; Холмўминов Ж. Жомий ва ваҳдати вужуд таълимоти. – Т., 2008; Мақсудов Б. Жустужў дар аҳвол ва осори Ироқий. – Душанбе, 2009.*

E.O.

FAXRIDDINOV Muhammadamin (1894–1941, Toshkent) – o‘zbek ma’rifatparvari, pedagog. Yangi usul maktablari u-n o‘zbek tili darsligi (“Turkcha qoida”), alifbe kitobi (“Rahbari avval”), geografiyadan qo‘llanma (“Jug‘rofiyai riyoziy”)lar yozgan. “Turkcha qoida” (1913, Toshkent) o‘zbek tilida birinchi marta yozilgan maktab darsligi bo‘lib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari u-n mo‘ljallangan. Unda o‘zbek tili grammatikasi, imlo va tinish belgilari haqida dastlabki nazariy ma’lumotlar, mashqlar berilgan. “Rahbari avval” (1917, Toshkent) usuli maddiya (harflarning nomiga unli tovushlar qo‘shib, cho‘zib bo‘g‘in hosil qilish)dagi birinchi rasmli o‘zbek alifbesidir. Darslikda original matnlar b-n bir qatorda K.D.Ushinskiy, L.N. Tolstoy va boshqa rus pedagoglarining bolalarga mo‘ljallangan asarlari ham berilgan.

1938-y.da N. tavalludining 500 yilligini o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish qo‘mitasiga taklif qilingan. “H.A.”ni nashrga tayyorlashda ishtirok etgan. Mashhur muarrix Xondamirning ustozi N.ga bag‘ishlangan “Makorim ul-axloq” asarini ba’zi qirqartirishlar b-n tarjima qilgan (1941).

Anisiy “Navoiy komitetidan andijonlik do‘stlarga maktub”ida bir qator hamkasblari qatorida F.M.ga ham ta’rif berib ketadi. Uning yozishicha, o‘sha paytda 45 yoshlarda bo‘lgan bu kishi “juda yuvosh va halim” bo‘lib, “quvvai ilmiyasi yetarlik, o‘zi eski muallimlardan bo‘lib, tahrir quvvati g‘oyat salisdur, she’rni ham yaxshi yozadi. Yozgan parchalaridan ilgari ham she’r yozib yurganligi bilinadi, lekin bir narsani to‘g‘ri fahmlaydi. Nozikfahm, didli tarjimon. Yaqin orada bosilib chiqadigan “Makorim ul-axloq” tarjimasini shu kishi ishlagan. Bu kitob mazmunlari aynan o‘zbekchada, real suratda ifoda qilingan, afsuski, ko‘p joylarda tushirib qoldirilgan”.

F.M. Faxriy taxallusi b-n ijod qilgan. Navoiy qo‘mitasi a’zolarining mushoiralarida qatnashgan. Mahjuriy uning vafotiga atab “Ayrilig‘” radifli marsiya bitgan. Unda, jumladan, shunday misralar mavjud:

Faxrim bor erdi Faxriyning ulfatlig‘i bila,
Oni ham etti ketmoqqa nochor ayrilig‘.

Ad.: *Хондамир. Макорим ул-ахлоқ (Таржимон: М.Фахриддинов). – Т., 1941; Отажон У. Мушоара. – Т., 2009; Анисий. Куллиёт. – Т., 2020.*

E.O., Sh.R.

FAXRIY HIROTIY – Sulton Muhammad bin Amiriy (t.y.n., Hirot – taxminan 1562–63, Hindiston), shoir, adabiyotshunos. Otasi Muhammad Amiriy ma’rifatli kishi bo‘lib, amir bo‘lganligi u-n Amiriy taxallusi b-n she’rlar yozgan. Ismoil Safaviy Hirotni olganda uni Amiriy va Durmishxonlarga bergan. F.H. Hirotda tug‘ilib o‘sgan, shu yerda tahsil olgan. Eron shohi Tahmuraspning saroy shoiri edi. Hindistonda Akbarning xotini Salimabegim va Shohhasan Shujo’ning saroyida xizmat qilgan. Manbalarda u olim, fozil, fasih, xushmizoj, xushta’b, xushxat, faxr uz-zamon (zamon faxri), zubdat ut-muallifin (mualliflar sarasi), xushtabiat kishi va yaxshi shoir deb ta’riflanadi.

Quyidagi asarlari mavjud: “Ravzat us-salotin” (“Sultonlar tazkirasi”) – ijodkor shohu amirlar haqida tazkira; “Javohir ul-ajoyib” – ayol shoiralar haqida tazkira. Unda 31 nafar ayol shoira haqida ma’lumot beriladi; “Tuhfat ul-habib” (“Do‘stlar tuhfasi”) – forsiy she’rlar majmuasi. Unda 254 ta shoir g‘azallari radif tartibida berilganidan u “Radoyif ul-ash’or” (“Radifli she’rlar”) deb ham yuritiladi; “Sanoye’ ul-hasan” (“Go‘zal san’at”) – she’riyat nazariyasiga oid asar; “Haft kishvar” (“Yetti mamlakat”) – tarixiy rivoyatlar va tasavvuf haqidagi asar; “Devon” – o‘zining qariyb 5 ming baytdan iborat she’rlar to‘plami. Manbalarda F.H.ning Shoh Taxmaspga bir qator qasidalar bag‘ishlagani xabar qilinadi. Hamda F.H.ga yana “Tazkirat un-niso” degan asar nisbat beriladi. F.H. “Radoyif ul-ash’or” nomli turli davrlarda yashagan 254 shoirning, jumladan, XV asr 2-yarmidagi Hirot adabiy maktabi namoyandalarining asarlaridan saralanib, radifi alifbosiga ko‘ra tartib berilgan bir majmua ham tuzgan. Unda Jomiyning 92 g‘azali, Hofizning 65, Suhayliyning 24, Sayfiyning 16, N.ning Foniy taxallusi b-n yozilgan 15 g‘azalini keltiradi.

F.H. haqida ko‘plab tazkiralarda ma’lumot berilgan bo‘lib, ularning barchasi uning fazlu

kamoli, iste'dodini yuqori baholaydilar. N.ning yaqin hamsuhbatlaridan bo'lganini qayd etadilar. N. "M.N." tazkirasida F.H.ni Hirot ahlidan ekanligini ta'kidlab, ijodidan namuna sifatida bir matla'sini keltirib o'tadi:

Gufti, ki hargizam ba tu dil mehribon nabud,
Ey sarvi nozanin, ba tuam in gumon nabud.

Tarj.: Ey sarvi nozanin, ko'nglim hech qachon senga moyil bo'lmagan deding, bunga men ham sira shubhalanmaganman.

F.H. 1521–22-yy.da N.ning "M.N." nomli tazkirasini fors tiliga tarjima qiladi va uni "Latoyifnoma" deb ataydi. F.H. N.ning ba'zi shoirlar haqidagi ma'lumotlarini boyitadi va o'zidan "M.N."ga 189 nafar shoirlar haqida qisqa ma'lumot va she'rlaridan namunalar beradi. F.H. o'z ilovalari u-n IX majlis ochib (9 qismdan iborat), uning 1-qismini N.ga bag'ishlaydi. Unda N.ning g'oyat qisqa tarjimayi holini bayon etadi. N.ning "Otasi Amir Kichkina Sulton Abu Said mirzo mulozimi edi. Agarchi uning muhr va mansabi bo'lmasa ham cheksiz hurmati bor edi. Onasining otasi (jadd) Mir Shayx Abu Said Chang Mirzo Boyqaroning amir ul-umarosi edi", deb yozadi. Bu yerda N. onasining otasi, ya'ni bobosi nomi keltiriladiki, bu g'oyat muhim ma'lumotdir. F.H. N.ning Abulqosim Bobur mirzo xizmatiga kirganini, maktabda esa Hasayn Boyqaro b-n hamsaboq va musohib bo'lganini bayon etadi. Husayn Boyqaro taxtga chiqqanida N. Samarqandda Xoja Fazlulloh Abdullaysiy madrasasida o'qir edi, yangi podshoh Sulton Ahmad Mirzoga xat yozib, uni poytaxtga chaqirtiradi, – deb ta'kidlaydi. N. o'z "V."sida maxsus farmon b-n taklif etilganini yozadi. Asarning amirlarga bag'ishlangan 6-bobida N. haqida ham yozadi. Uning kunlik daromadi 15 ming kepakiy dinor ekanligini ta'kidlab, u o'z mablag'larini turli-tuman qurilishlar, ta'mir ishlari va xayr-u ehson maqsadida sarflashini aytadi. Jumladan, har kuni 75 ming dinor xazinaga yuborib, 15 ming boshqa harjlarga, har yili 1000 dinor sarupo hamda turli maskanlar ta'miriga ajratganini va 370 xayriya binolar, 90 ta rabot qurdirgani haqida qaydlar mavjud. Shoir asarlarini sanab o'tar ekan, "L.T" dostonini "Qissai Shayx San'on" deb ko'rsatadi. Ro'yxatdan "M.L.", "T.M.A.", "T.A.H.", "V.", "M.", "S.M", "X.M.", "H.S.H.A.", "H.P.M." asarlari tushib qolgan. Ta'rifiga qalam ojizligi, ulug'ligi quyoshdek ayonligini ta'kidlab, ijodidan namuna sifatida "N.Sh." devonidan bir g'azal va "Tuhfat ul-afkor" qasidasining matla'sini keltiradi. Asarda N. vafoti munosabati b-n Sohib Doro va Xoja Osafiy yozgan marsiyalaridan kichik parchalar, Xondamirning qit'asi ham berilgan.

F.H.ning "Ravzat us-salotin" va "Latoyifnoma" ("M.N." tarjimasi) asarlari Eronda nashr etilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Вақфия. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. – Теҳрон, 1945.*

S.G'., M.A.

FAXRIYA (ar. – maqtanish) – she'riy san'at. Shoirning iste'dod darajasi, qalami qudrati, asarlarining badiiy yuksakligi hamda erishgan muvaffaqiyatlari va shon-shuhratidan faxrlanib bitgan she'r-u baytlari. F. deyarli barcha Sharq shoirlari ijodida uchraydi. She'riyatda muayyan maqomga erishgan shoir o'zining so'z san'atidagi mavqe-martabasi, erishgan muvaffaqiyatlari, yuksak mahorati va asarlarining dovrug'idan so'z ochishi tabiiy.

"Faxriyani oddiygina maqtanchoqlik, deb tushunmaslik kerak, zero, uning yaxshi namunalarida faxr tuyg'usi sharqona odob doirasida ifodalanadi. Odatda, shoir iftixori ustozlarga minnatdorlik hislari b-n qorishib ketadi, ulardan o'rganibgina yuksak natijalarga erishgani e'tirof etiladi. M-n, N.ning:

Olibmen tahti farmonimga oson
Cherik chekmay Xitodin to Xuroson, –

bayti faxriya bo'lib, u matnning bir qismi, xolos: matnda bu baytga qadar shoir ustozlarini eslaydi,

ularga yuksak baho beradi. Bu ham faxriyaga janr emas, balki san'at deb qarash to'g'riroq ekaniga dalolat qiladi" ("Adabiyotshunoslik lug'ati").

N. ijodida F.ning rang-barang shakldagi ko'plab namunalari mavjud. U o'z F.larida goh ustozlarini ulug'lab, o'zining ularga munosib shogirdligidan so'z ochsa, goh favqulodda iste'dod sohibi ekanligini komil ishonch b-n ta'kidlaydi, goh she'rlarining mavzulari, janrlari, vaznlari haqida ma'lumot bersa, goh asarlarining badiiyat sirlariga e'tibor qaratadi, goh adabiy muvaffaqiyatlari-yu badiiy kashfiyotlari b-n faxrlansa, goh asarlarining shuhratidan iftixor tuyg'ularini izhor qiladi.

Eng muhimi, N. F.lari shunchaki maqtanish bo'lmay, shoirning badiiy olamiga kirish yo'lidagi o'ziga xos ochqichlardir. Chunki ularda u o'zining iste'dodi, salohiyati, mahorat qirralarini ochibgina qolmay, asarlarining janriy tarkibi, mavzu ko'lami va obrazlar olami, badiiy yuksakligi, salmog'i va ahamiyati haqida ham fikr yuritadi. Ayni jihatda, uni o'z ijodining ilk tadqiqotchisi deyish mumkin.

"L.T." dostonida:

Turk nazmida chu men tortib alam,
Ayladim ul mamlakatni yakqalam, –

degan shoir g'azallarida ham ko'plab baytlarida o'ziga munosib bahoni o'zi berib ketgan. M-n, ulardan birida: "Sharbat qancha shirin bo'lsa, kishining ichini shuncha kuydirgani kabi, Ey Navoiy, shirin she'rlaring ham el ko'nglini shunchalik o'rtadi" deydi:

Navoiy, o'rtadi shirin hadising el ko'nglin,
Nachukki, kuydurur ichni,
chu sharbat o'ldi chuchuk.

Mana bu baytida esa ishqning turli xususiyatlarini bilib olay degan kishi barcha ishini yig'ishtirib qo'yib, bizning devonni yod olsin deydi:

Ey Navoiy, ishq atvorini hifz aylay degan,
Barcha ishni tark etib, qilsun bizingdevonni hifz.

Bu b-n hassos shoir devonining asosini ishq tarannumi tashkil etishiga ham ishora qiladi.

Shakarqamish ham, oddiy qamish ham nay, deb atalgan. Ayni paytda majozan qamish qalam ham ko'zda tutilgan. So'zning ma'nodoshligidan foydalanib, quyidagi baytida shoir go'zal tajnis yaratadi:

Kilkida Navoiyning jon shirasi muzmardur,
Har nayda qachon bo'lg'ay bu nav' shakar paydo.

Shoh b-n shoirni qiyoslab, shoh qilich b-n mamlakatlarni zabt etsa, shoir qalami b-n ularni qo'lga kiritadi deydi:

Shah Navoiy tilidek tig' ila ko'p mulk ochti,
Tortmish ochqali Bag'dod ila Tabriz qilich .

Boshqa baytida bu fikrni yanada konkretlashtirib: "Ovozasi olamni tutgan shoh dunyoni tig' kuchi b-n olsa, Navoiy she'riyat mulkini til qudrati bilan olmish" deydi:

Nazm mulkin til chekib olmish Navoiy, o'ylakim,
Cheksa olamni olur shohi falakmiqdor tig'.

O'zining adabiyotdagi mavqe-maqomi haqida esa shunday yozadi:

Ey Navoiy, qilg'ali tab' ahli jinsi she'r nazm,
Nazming o'ldi barchasig'a qoyil, balkim radif.

Bu b-n shoir o'z davri ijodkorlari o'rtasida ustod darajasiga ko'tarilgani, qo'liga qalam tutgan borki, undan o'rganib, ta'sirlanib, unga ergashishi, g'azallariga tatabbu'lar yozishi, muxammaslar bog'lashiga ishora qiladi. Chunki o'sha zamonda Hirotda N. she'rlari kirib bormagan xonadon, atrofda uning devoni tarqalmagan shahru viloyat yo'q edi, deyish mumkin.

N.ning bunday F. bayt-u misralari, fikrlari nihoyatda ko'p. Ularning barchasini bir erga to'plab, sinchiklab tahlil qilinsa, ulug' shoirning o'z iste'dod kuchi-yu mahorat darajasi, asarlarining mavzu ko'lami-yu badiiy yuksakligi, tarqalish do-

irasi-yu ta’sir qudrati haqida o‘zi “ko‘b va xo‘b” baho berib ketganligiga shohid bo‘lamizki, n.shunoslar bu buyuk so‘z san’atkoriga uning o‘zidan oshirib baho berganlaricha, bu chek-chegarasiz badiiyat olamining barcha sir-sinoatlarini butun qirralari b-n kashf etib ulgurganlaricha yo‘q.

N.ning qator F.lari g‘oyibdan kelgan ovoz (hotif, surush) yoki buyuk salaflari va ustozlari (Nizomiy, Jomiy) nomidan keltiriladi. M-n:

Dedim: nazm ahlining sarxayli
kim bo‘lgay, dedi Hotif:
Navoiy bo‘lgan ulkim,
sen tilaydursen agar, bo‘lg‘ay.

Bu yerda Hotif N.ning nazm ahlining peshvosi, shoirlarning ustodi bo‘lishini bashorat qiladi.

“X.” nihoyasida esa Nizomiy g‘azal va masnaviyda beqiyos muvaffaqiyatlarga erishib, shuaro peshqadamiga aylanganini ta’kidlaydi:

Sipehr aylab el ichra nodir seni,
Jahon nazmi tavrida qodir seni.

G‘azal tavrida chunki qilding xirom,
So‘z ahlig‘a so‘z derni qilding harom.

Tutib erdi nazming jahon kishvarin,
Jahon kishvarin yo‘qki, jon kishvarin.

Bu dam masnaviyg‘akim aylab shitob,
To‘ka boshlading xomadin durri nob.

Ajab ish bu ishda sanga berdi dast −
Ki, el nazmig‘a berdi nazming shikast.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-жилдлар. – Т., 2011; Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т., 2006; Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Т., 2001; Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2010; Очилов Э. Бир ҳовуч дур. – Т., 2011.*

E.O., S.O

FAQIR – istilohiy ma’noda faqr maslagini qabul qilgan haqiqat izlovchi, o‘zlik yukidan voz kechgan, haq va haqiqatga muhabbatdan boshqa hech nimasi qolmagan solik. F. axloqiy tushuncha bo‘lib, uning lug‘aviy ma’nosi “qashshoq”, “yo‘qsil” demakdir; “G‘iyos ul-lug‘ot”da “faqir – hech nimasi yo‘q, benihoya muhtoj, miskin” sifatida sharhlangan bo‘lsa, “Farhangi zaboni tojikiy”dagi sharhga ko‘ra ***faqir***: 1) kambag‘al, qashshoq, nochor, muhtoj; “g‘aniy”ning aksi; 2) tilanchi, gado; 3) kamina, men (xoksorlik yuzasidan) ma’nolariga egadir. “Turkcha so‘zlik”da bu so‘zning: 1) yo‘qsil, muhtoj; 2) zavolli, kamchilikli; 3) kerakli miqdordan oz; 4) “men” o‘rniga kamtarlik u-n qo‘llaniladigan kalima ma’nolariga egaligi aytilgan. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “faqir”ga: “1. Moddiy jihatdan nochor, kambag‘al, qashshoq; muhtoj; 2 *esk*. Birinchi shaxs o‘rnida yoki “men”, “biz” olmoshlari b-n birgalikda ishlatilib, so‘zlovchining kamtarlik qilayotganini ifodalaydi”, deya sharh berilgan.

N. F. obraziga juda ko‘p murojaat qilganligini ko‘rishimiz mumkin. Chunki N. u-n faqr real hayotda maslak, badiiy ijodda faqir obrazi estetik ideal mavqega ko‘rilgan.

F. obrazi N. lirikasida umumiy hisobda 264 marta qo‘llanilgan. Shundan “X.M.”da 192 marta, “B.B.”da 114, “N.N.”da 76 marta, “Ilk devon”da 58 marta uchraydi.

Mutafakkir shoirning fikricha, F. ichra o‘zligidan kechish foniylik belgisi, chunki fanodan bahramand bo‘lgan kishining o‘zligidan kechishi, yakka-yu yolg‘iz (fard) bo‘lishi tabiiy holdir.

Faqr ichra, ne tong, o‘zlukidan
kechsa Navoiy,
Fard o‘ldi fano shevasidin
bahravar o‘lg‘an.

Ham fano, ham o‘zlik (ya’ni ikkilik) faqrg‘a to‘g‘ri kelmaydi. Faqr ichra fano shevasidan bahravar bo‘lgan N.ning fardlik maqomiga yetishi ajablanarli emas. Demak, F. yo‘lida o‘zligidan kechish tajrid va tafrid maqomiga yo‘l ochadi.

F. “fano eli yetgach” ruh yuksak ma’naviy maqom (uruj)ga etadi, deydi shoir, buning u-n F.

avvalo, o‘zligini faqr ko‘yida tuproqqa aylantirishi kerak:

Istasang yetkach fano eli sanga bo‘lg‘ay uruj,
Faqr ko‘yida burun qilmoq kerak sen o‘zni xok.

N. talqinicha ham faqr yo‘lida asl maqsadga etib borishning chorasi o‘z vujudi va uning talablarini yo‘q etish, o‘z vujudidan kechib, Haq vujudiga birikishdir:

Dedingki, faqr yo‘linda topildi maqsadi asliy –
Vujud naqshini jon lavhidin magar adam etting?

N. e’tiroficha, ikki narsa: o‘z vujudini nafy (rad) etish, yiroqlatish, ketkazish va mavjudni bazl etish – qo‘ldagi narsalarni ehson, hadya qilish faqr ichra foyda yetkazadigan narsalardir. U qit’alaridan birida yozadi:

Vujudung nafyu mavjudungni bazl et,
Chu mavjud o‘ldi bu ish – kominga yet.

Ki, faqr ichra nimakim yetkurur sud
Erur nafyi vujud-u bazli mavjud.

“Vujud” deganda N. faqat tan, moddiyatni tushunmaydi. Uning nazdida, dunyo b-n bog‘liq barcha narsalar, inchunin, ko‘ngil xohish-istaklari va nafs da’volari ham vujuddir. Shoir zohidni tanqid qilar ekan, undagi F.lik da’vosini faqrdan emas, deydi. Chunki hatto, F.likka bo‘lsa-da unda da’vo mavjud ekan, uning vujudi hali barham topmagan:

Da’vii faqr etsang, ey zohid,
gum o‘l mayxonadin,
Kim, bu yo‘lda kimsaga
bo‘lmas vujud o‘lmay adam.

Faqr da’vosi – o‘zini F.lar guruhiga mansub deb bilish aslida faqrdan yiroqlik belgisi ekanligini shoir bir boshqa baytda quyidagicha ifodalaydi:

Faqrdin yuz yilchiliq yo‘l men yiroq, avval dalil
Buki, faqr oyinini o‘zumga isnod aylaram.

F.lik yo‘lini tutgan haqiqiy oshiq o‘zini o‘zi malomat qilishi, birovning uni malomat qilishini esa matlub (o‘ziga qabul qilish mumkin bo‘lgan ish) ish deya hisoblashi kerak. N. ruboiylaridan birida F. u-n malomatning matlubligini ta’kidlab yozadi:

Bir aybg‘a garchi xalq qilg‘ay mansub,
Faqr ahlidin iztirob emastur mahsub.

Sidq ersa xud etmak kerak o‘z fe’lini xo‘b,
Kizb ersa, malomat dag‘i bordur matlub.

Faqr yo‘lini tutib, malomatni matlub bilgan oshiq avom tomonidan otilgan kizbu bo‘hton, ta’na va tuhmat toshlarini ham ma’naviy kamolot manbaiga aylantiradi. Shuning u-n ham o‘zini quyi olib, o‘z nafsini malomat qilish faqr oyini (usul, ravish, yo‘l, hayot tarzi)da insoflilik belgisidir.

“N.M.” tazkirasida F. obraz sifatida emas, balki tarixiy shaxslar o‘laroq gavdalanadi. F. to‘g‘risida rang-barang fikr-mulohazalar o‘rtaga tashlanib, faqr maqomidagi F. muridning fazilatlari ko‘rsatiladi: “Sahl b. Abdulloh Tustariy (q.s.) debdurki, “modomiki, faqirlikdan qo‘rqasan, sen munofiqsan”. Abu Hamza Bag‘dodiy (q.s.) debdurki, “faqirlarni do‘st tutish og‘ir, unga siddiqlardan boshqalar chiday olmaydilar. Muhammad va Ahmad b. Abulvard (r.t.) debdurki, faqrda faqirning odobidin bir uldurki, dunyo muhabbatig‘a giriftorlarg‘a sarzanish qilmag‘ay va rahmu shafqat qilg‘ay va xayr duosi qilg‘ay”. Umrning foniyligiga ko‘ra so‘fiylar o‘zlarini vaqtga nisbat berishgan. Haq yo‘lchiligida kimdir Vaqt farzandi bo‘lsa, kimdir Vaqt otasidir. Shayx ul-islom dedikim, Shayx Amu dedikim, Sirvoniy dedikim, “faqirlar rohatga oshiqqan dunyo va oxirat podshohlaridir”. Va ham ul dediki, “faqir – vaqt farzandi. Agar u kelajakka ko‘z tutsa, bas, faqirlikdan chiqadi”. Va ham ul debdurki, Junayddin eshittimkim, dedikim, har kimga foqa etishsa, anga bir ortug‘ to‘n bo‘lg‘ayki, onsiz basar qila olg‘ay; ul foqa anga buxldin etmish bo‘lg‘ay. Va ham debdurki, “talabimizni qondiring, chun-

ki talabimiz talab bilan hosil bo‘lmaydi”. Va ham: ul debdurki, Murta’ish dedikim, “faqir yigirma yil umrini o‘yin bilan o‘tkazsa-yu, so‘ng bir soat sadoqat ko‘rsatsa, albatta najot topadi)”. Pas Sirvoniy dedikim, “Xudo saqlasin, ular o‘ynamaydilar!”.

N. ham bejizga o‘zini “al-faqirul-haqir” deya atamagan. Shuningdek, barcha asarlarida o‘ziga nisbatan F. xitobi keladi: “Sayyid Hasan Ardasher – bu faqirg‘a ota masobasida erdi. Andoqkim, Mirzobek farzand masobasida erdi, ham anga va ham faqirg‘a. Bu faqir turk va sort orasida andin tamomroq kishi ko‘rmaydurmen”.

Ad.: *Алишер Навоий. ТАТ. 10 жилдлик, 1-10-жилдлар. – Т., 2011.*

Z.R.

FAQR – tariqatning to‘rtinchi maqomi. Ibrohim Buxoriy Kalobodiy Faqrga ta’rif berib: “Faqr – moling bo‘lmaslik, bo‘lsa ham senga mansub bo‘lmaslik, faqir esa haqiqat ma’rifatiga niyozmand kishidir”, degan. Mazkur maqom haqida Ahmad Yassaviyning “Faqrnoma”si kabi islom olamida maxsus asarlar yaratilgan.

F.ga qiziqishning kuchayishi va kengayib borishi keyinchalik uning istilohiy ma’no-mohiyat kasb etishi b-n bog‘liqdir. Istilohiy ma’noda F. fanodan bitta oldingi yuqori bosqich, ya’ni tasavvuf yo‘li (tariqat)ni tutgan solik *talab, ishq, ma’rifat, istig‘no, tavhid, hayrat, faqr* vodiylaridan keyin oxirgi – fano vodiysiga etib keladi. Bu esa komillik darajasi demakdir. Ko‘rinadiki, F. haqiqatiga yetmoq, aslida, komillik darajasiga yetmoqdir. N. ham F.ga bir yo‘l sifatida qaragan. Odatda, so‘nggi marhalalardan bo‘lmish fano b-n birgalikda qo‘llaniladi: “Xoja Ruknuddin Mehna (q.s.) ham Hazrat Shayx Abu Said Abulxayr (q.r.) ning avlodidurlar. Donishmand va muttaqqiy erdilar. Fanovu faqr tariqlarida g‘olib voqe’ bo‘lub erdi”. Bu kabi ifodalar lirikasida ham ko‘p:

Fano havas qilu faqr et havo Navoiydek,
Vale havovu havas qilmag‘il havovu havas.

“Qur’on”da bandaning Yaratuvchi oldida yo‘qsil ekanligi ifodalanib, F. bandaning, boylik esa Yaratuvchining sifati ekanligi uqtirilgan: “Ey insonlar! Sizlar Allohga muhtojdirsizlar. Allohning o‘zigina (barcha odamlardan) behojat va (barcha) maqtovga loyiq zotdir” (“Fotir” surasi, 15-oyat).

Muhammad (s.a.v)ga nisbat berilgan “Al-faqru faxriy” (“Faqirlik mening faxrimdir”) hadisida ham F.“Qur’on”dagi mazmunga hamohang ma’nolarni ifodalaydi. Unga ko‘ra, F.ning faxrligiga sabab bandaning Allohga doimiy muhtojligini bildirib, yaratuvchining qudrati, binobarin, ulug‘ligini ifodalashidadir. Jo‘mardlik – hazrati Ibrohim (a.s.)ga, Rizo – hazrati Is’hoq (a.s.)ga, Sabr – hazrati Ayyub (a.s.)ga, Ishorat – hazrati Zakariyo (a.s.)ga. Yung libos kiyish – Muso payg‘ambarga, G‘urbat – hazrati Yahyo (a.s.)ga, Sayohat – Isoi Masih (a.s.)ga, Faqr – Muhammad Mustafo (s.a.v.)ga nisbat berilgan. F. hotami nabiydan qolgan ma’naviy bir rutbaki, unga erishmoq qattiq bir riyozat bo‘lishi barobarida ummat u-n bir orzuga ham aylangan:

Tilarsen faqr dashtin qat’ qilg‘aysen eranlardek,
Bag‘ir suv qil, yurak pargolasidin o‘zga zod etma.

Navoiy, istasang uqbo murodin nomurod o‘lg‘il,
*Agar dunyo murodi yo‘qtur o‘zni nomurod etm*a.

“N.M.”da Shayx Abu Ja’far Majzumning: “... faqr-u darveshlikni ko‘nglumg‘a mahbub qil! Va holo hech nima bila oncha muhabbatim yo‘qdurki, faqr-u darveshlik bila!” duosi keltiriladi.

Tasavvuf ahli bir ovozdan ﻯﺮﺨﻔﺮﻘﻔﻟﺍ (“Al-faqru faxriy”)ni hadis deydilar va payg‘ambarga nisbat beradilar, ammo uni hadis emas, deguvchilar ham bor. Ammo “Irfon va faqirlik sharofati bilan faxrlangan Muhammad (s.a.v.) ga salotu salomlar yo‘llaymiz”, degan N.ning “Tuhfat ul-afkor”da yozadi:

Rah sui Haq behad, ammo hast aqrib rohi faqr,
Bahri onk-“Al-faqru faxri” guftai payg‘ambar ast.

Tarj.: Haqqa olib boradigan yo‘llar behad ko‘p, ammo faqr shu yo‘llarning eng yaqinidir,

chunki payg‘ambar “Faqirlik mening faxrimdir” dedi.

N. lirikasida faqir obrazi podshoh (shoh), dunyo va zohid obrazlari b-n kontrast aloqadorlikda tasvirlanadi:

Boisi maqsud zohid zuhd qildi, men fano,
Faqr iqbolidin ul mushkulni oson ayladim.

Shoir lirikasida uslub va badiiy metod b-n bog‘liqlikda faqir obrazi yaratilgan baytlar ko‘pincha maqta’ yoki maqta’dan bitta oldin kelgan baytlarga to‘g‘ri keladi:

Shod o‘lubtur faqr kuyida Navoiy o‘ylakim
Saltanat farshi gadolig‘ bo‘ryosidur aning.

“S.I.” dostonida F. shohlik b-n bog‘liqlikda talqin etiladi, “L.T.”dagi Shayx San’on obrazi tasvirida kamolotning F. orqali asoslanishi ushbu dostonlarda F. asar shakliy, badiiy g‘oyasini shakllantiruvchi, unga yo‘nalish beruvchi masala sifatida qaralganligini ko‘rsatadi.

Ammo birgina “N.M.” tazkirasidagi muallif va valiylar tilidan keltirilgan fikr-qarashlar jamlansa ham, F. haqida yaxlit tasavvur hosil qilish mumkin. Shuningdek, bu amaliy xulosalar sayri sulukda F. maslak maqomining o‘rni va mazmun-mohiyatini to‘laqonli ochib beradi. M-n, Mavlonodan keltirilgan misralar F. yuksak bir hol sifatida qaralganligini asoslaydi:

“Faqr – javhardir, faqrdan boshqasi arazdir,
Faqr – shifodir, faqrdan boshqasi bemorlikdir.
Olamning barchasi nayrang va g‘ururdir,
Faqr esa, olamdag‘i sir va maqsaddir”.

N. qayta-qayta valiylar tilidan F. maqomini izohlaydiki, bu ham F.ning nafs tarbiyasida muhimligini tasdiqlaydi: “Abu Abdulloh Roziy dedikim, Valid Saqqo qoshig‘a bordim, tiladimkim, menda andin savole qilg‘oymen. Bosh ko‘tardi va dedikim, faqr anga musallamdurkim, aning xotirig‘a hargiz Haqdin o‘zga kirmaydur va qiyomatda bu so‘zumning uhdasidin chiqa olurmen”. Yana bir o‘rinda shunday keltiradi: “Shayx ul-islom dedikim, Abu Abdulloh Duniydin so‘rdilarki, faqr nedur? Dedikim, “odamlar orasida voqe’ bo‘lgan ismdurkim, ma’nosi tom bo‘lsa, u Allohu taolodir”.

Tasavvufda *“faqr tariqi”, “faqr vodiysi”, “faqr yo‘li”, “faqr dashti”, “faqr ko‘yi”, “faqr ahli”, “faqr-u fano”* kabi birikmalar paydo bo‘lgan: “Mavlonodin maxsus muridlari ul kayfiyatni tahqiq qilg‘andin so‘ngra mundoq debdurlarki, yigitligimdaki, tahsilg‘a mashg‘ul erdim va faqr tariqi suluki doyim ko‘nglumga o‘tar erdi va orzum bor erdi. Bir kecha voqe’ada ko‘rdumki, ikki kishi meni yotqurdilar va ko‘ksumni yordilar va ko‘nglumni chiqarib, birisi oftoba bila suv quydi va birisi ko‘nglumni yudi va yana ko‘ksumga soldilar va butkardilar. Men ul voqe’a ko‘rgali tahsil ishin barham urub faqr tariqi sulukini ixtiyor qildim”.

N. F.ga o‘z lirikasida katta ahamiyat qaratgan. M-n, shoir F. yo‘liga qadam qo‘ygan odamga qarata endi bu yo‘lga kirdingmi, o‘zlikdan kechgil, bu sen u-n juda ham og‘ir yuk, F. yo‘li esa uzundan uzoq, agar sen bu uzoq yo‘lni bu og‘ir yuk b-n o‘tmoqchi bo‘lsang toyasan, yiqilasan deydi:

Faqr vodiysida chun urdung qadam o‘zlukni sol,
Yo‘l uzundur, bu og‘ir yukni ko‘targan tovshalur.

F. kasb etishning sabablaridan yana biri F. ichra qanoat ganjining mavjudligidir. N. F.da “manqana’” mazmuni sobit ekanligi sababli F. eshikini “lajoj ila” (qattiq, astoydil) qoqishga da’vat etadi:

Qoqqil, Navoiy, ushbu eshikni lajoj ila,
Kim, sobit o‘ldi faqrda mazmuni “manqana’”.

“X.M.”ning “B.V.” devonidan joy olgan ushbu g‘azal payg‘ambar (s.a.v.) na’tiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda shoir ul zotning “Azza man qana’, zalla man tama’” (“Qanoatli inson aziz, tama’gir kishi xordir”) hadisiga ishora bor. F.da “manqana’” mazmuni sobitligini ta’kidlash orqali F. tasavvuf yo‘liga kirgan kishi u-n payg‘ambar (s.a.v.) sunnatiga ergashishning vositasi sifa-

tida tavsiya etiladi. Ya'ni "manqana'" bevosita rasul sunnati, "manqana'" mazmuni esa F.da mujassam. Binobarin, F.lik ham payg'ambar (s.a.v.) sunnatidir. Buning ahamiyati shundaki, F. Qur'on va hadis mazmuniga muvofiq kelish orqali tasavvuf va shariatni o'zaro bog'lagan.

N.ning "Qanoat sinuq safolisi jomi Jamdin va faqr quruq nonin Xotam chekkan nia'mdin yaxshiroq ko'rar muntahi" (Muntahiy (intihoga etgan, kamolotga erishgan kishi)ning qanoat siniq safolini Jamshidning jomidan va F. quruq nonini Xotam bergan noz-ne'matlardan yaxshiroq deb hisoblashi bayonida) sarlavhali bir qit'asi ham F. va qanoatning nima u-n azizlik sari eltishini tushunish nuqtayi nazaridan ahamiyatli hisoblanadi:

Sinuq safolki, may durdin ichkali topsang,
Qabul aylamagil jomi saltanat Jamdin.
Ilikka kirsa quruq non, maosh uchun chekma
Nashot ne'matining minnatini Hotamdin.

Yoki N. yana bir o'rinda faqr-u qanoatning azizlik martabasiga yetkazuvchi vosita ekanligini aytadi:

Nafs xor etmish Navoiyni, aziz et faqr birla,
Ey jalolu rahmatingdin gar zalilu gar muazzaz.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ситтаи зарурия. Туҳфат ул-афкор. Нашрга тайёрловчи Ҳ.Сулаймон / Адабий мерос (Ҳужжат ва тадқиқотлар). 1-китоб. – Т., 1968; Қуръони Карим. Таржима ва изоҳлар муаллифи А.Мансур. – Т., 1992; Баранов Х.К. Арабско-русский словарь. – М., 1977; Муҳаммад Ғиёсиддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. – Душанбе, 1988; Фарҳанги забони тожики. Т.2. – М., 1969; Türkçe sözlük. J.I. – Ankara, 1988; Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик, 4 жилд. – Т., 2008; Ферузонфар, Бадиъуззамон. Аҳодиси "Маснавий". – Теҳрон, 1334 ҳ.ш. (форс тилида).*

N.R., Z.R.

FAQIRIY (1980–1925) – Abdurazzoq Abdujabbor o'g'li Xiva yaqinidagi Bo'zxona qishlog'ida tug'ilgan. Dastlabki xat-savodini mahalla masjidi qoshidagi maktabda chiqarib, keyinchalik Olloqulixon madrasasida o'qigan. Madrasada o'qib yurgan kezlarda xorazmlik mashhur hattot Xudaybergan Devondan hattotlik sirlarini o'rgangan. Otasi Abdujabbor o'z davrining ziyoli kishilaridan bo'lib, san'at va adabiyotdan xabardor bo'lgani bois N., Ogahiy, Munis, Komil Xorazmiy, Umar Hayyom, Jomiy, Fuzuliy ijodi b-n tanishtirgan. F. otasidan yog'och va ganchga naqsh o'yish san'atini o'rgangan. Hasan Murod Qori – Laffasiy "Tazkirai shuaro" asarida shunday yozgan: "Faqiriy shundog' xush ta'bi islimkor, naqqoshkor erdikim, aning islim naqshin ko'rgan zamon usta hunarmand naqqoshkor Plotunlari bir ko'rmaklik b-n Faqiriyga musallam qilib, o'zlarin bino xirkasan ichra solib, tillarin takallumdin xomushlikda qilib unga shogird bo'lmoqni orzu qilar edilar:

Qilibon yana sho'x ash'orlig',
Qilurdi naqshda xushyorlig'.

F. musiqa ilmini ham puxta egallagan. Yoshligidan Sharq mumtoz adabiyotiga o'zgacha mehr-muhabbat b-n ulg'aygan va she'rlar ham yozib yurgan. She'rlarida tanqidiy ruh yetakchilik qilib, johil amaldorlarni hajv qilingan. Xalq orasida "Shoir Faqiriy", "Hattot Faqiriy", "Naqqosh Faqiriy", "Usta Faqiriy" nomlari b-n mashhur bo'lgan. 1914–15-yy. da she'rlarini "Devoni Faqiriy Xorazmiy" devoniga jamlagan. "Devon"i g'azal, masnaviy, murabba', muxammas, musaddas, mustazod, ruboiy, chiston kabi janrlarda yozilgan she'rlardan tashkil topgan. "Devon"ning shoir qo'li b-n ko'chirilgan nusxasi O'zR FAShIda saqlanadi (inv. №7679).

F. ijodida ishq-muhabbat mavzusi yetakchilik qilgan. O'zbek mumtoz she'riyati namoyandalari: N., Munis, Ogahiy an'analarini davom ettirgan. Xususan, N. g'azallaridagi tasvir uslubini o'z she'riyatiga mahorat b-n tatbiq etgan:

Ey ko‘ngil nazm ichra yormand Navoiydur sanga,
Yaxshilarni so‘zidin naql et davomidur sanga.

Shoirning “Aylansun sani”, “Ayrilg‘ali”, “O‘zingsan”, “Bo‘lmag‘ay”, “O‘zgacha”, “Ayo dilbar”, “Ko‘rgali”, “Surating” radifli g‘azallarida mashuqaning cheksiz go‘zalligi va latofati, oshiq iztiroblari mahorat b-n tasvirlangan.

Muroding qatlim ersa ey parizod,
Kelib qatl et, bo‘lay bu darddin ozod.

Ad.: *Қобулов Н. “Абдураззоқ Фақирий. – T., 1974.*

E.Q.

FAQIH – fiqh ilmlarining bilimdoni, N. asarlarida uchraydigan atama. “Faqih” so‘ziga lug‘atlarda musulmon qonunshunosligi ilmining bilimdoni, huquqshunos olimi, degan qisqa va lo‘nda ta’rif beriladi. N. “X.” dostonlari matnida bu atamani boshqa asarlariga nisbatan ko‘proq qo‘llagan. Jumladan, “L.M.”ning “Husayn Boyqaro madhida” nomli 7-bobda shohning F.lar b-n fiqh ilmi masalalari yuzasidan qilgan suhbatlari, majlislari, bu majlis-u suhbatlarda Husayn Boyqaro aytgan masalalarni sharhlab, izohlab F.larning risola-yu kitoblar yozishlari va bu harakatlari b-n shoh ham, F.lar ham Abu Hanifa ruhini shod aylashlari haqida to‘lqinlanib yozadi:

Bazmi aro har faqihi mohir,
Bir mas’ala qildi ersa zohir...

Har yerdaki, ul debon masoyil,
Andin fuqaho yozib rasoyil...

Har nuqtaki, ko‘rguzub vuzuhin,
Shod aylab Abu Hanifa ruhin.

“S.S.”da u yashirin talmeh san’ati vositasida Abdurahmon Jomiyni kitobxonga go‘yo mashhur F. Imomi A’zam deb tanishtiradi. Shoir bu o‘rinda yana takrorning oldini olib, fuqaho, ya’ni F.lar ko‘plik shakli o‘rniga “fiqh eli” so‘z birikmasini san’atkorona qo‘llagan.

“M.N.”dagi mashhur F. Xoja Fazlulloh Abullays Samarqandiy zikrida to‘rt nafar F. nomi ochiq va yashirin talmeh san’ati asosida yodga olinadi: birinchisi – ustozi F. Abullays Samarqandiy, ikkinchisi – F. Abullays avlodlari, uchinchisi – F.lar avvali Abu Hanifadir, to‘rtinchisi esa muallifning o‘zi, ya’ni F. N.dir: “Xoja Fazlulloh Abullaysiy – Samarqand akobiridindur. Faqih Abullays avlodidindur. Fiqhda ani Abu Hanifayi Soniy derlar erdi va arabiyatda Ibn Hojib kaffasida tutarlar erdi. Sayyid Sharifning shogirdi erdi va Sayyid o‘z xatlari bila ulumi dars ayturg‘a ijozatnomalar aning uchun bitib erdi. Faqir ikki yil alarning qoshida sabaq o‘qub erdim, ancha iltifotlari bor erdikim, “farzand” der erdilar... Samarqandning a’lami ulamosi erdi”.

“N.M.”da “Agarchi faqohatqa mashhurdur”, deb o‘zgacha ta’rif b-n yagona “Faqih” nisba (uning kelib chiqishi yoki kasb-korini ko‘rsatuvchi nomi – B.R.)siga ega shayx Shayx Imoduddin Faqihni yodga oladi. Yagona deyishimizga sabab, N. tazkirada zikr qilgan 770 nafar shayxning amir, xoja, mavlono, bobo, ota, turkmon, kurdiy, bob kabi nisba, unvon, kunyalarini ko‘p o‘rinda tilga olsa, Faqih nisbasi b-n faqat shayx Imomiddinni tanishtiradi, xolos. Demak, N. tarixiy siymolar b-n bog‘liq lavhalarda ham islom huquqshunosligiga oid F. atamasini bor mazmun mohiyati b-n qo‘llagandir.

N. F.ni “G‘.S.” devonidan joy olgan 7 baytli “qaro” radifli g‘azal matnida “ey faqih” shaklida yoyiq undalma so‘z vazifasida san’atkorona ishlata olgan. Ya’ni, ba’zi nopok F.larni fiqh tizimidagi faoliyatlaridagi makr, firib, noxolislik, adolatsizlikni tanqid qilib, poklikka, adolatga, haqlikka undab, shunday purma’no misralarni yozgan:

G‘ayrdin qilg‘il zamiring safhasin pok, ey faqih,
Tobakay qilmoq firebu makr ila daftar qaro.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер*

Навоий. Лайли ва Мажнун. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Фарҳанги забони тожики. Жилди 2. – М., 1969; Кифоя. (Шарҳи мухтасари виқоя). 1-жуз. – Т., 2008. Навоий асарлари луғати. Т., 1972; Turkce sozluk. 10 Baski. – Ankara, 2005; Ҳакимов М. Шарқ манбашунослиги луғати. – Т., 2013; Ражабова Б. Навоий ижодида тарихий-ҳуқуқий атамалар. Ўзбек тили ва адабиёти. 2015. 4-сон.

B.R.

FARG‘ONIY ABU JA’FAR – “N.M.”da tilga olingan tasavvuf shayxi. Taxallusiga ko‘ra, asli Farg‘onadan bo‘lgan. N. ning xabar berishicha, oti Muhammad Abdullohdur. Shayx ul islom Abdulloh Ansoriy aytadiki, F.A.J. Abu Usmon Hiriyning xodimi ekanligini Abu Abdulloh Bokudan eshitdim. F.A.J.ning so‘zidirki: “Tilning takallumi da’vo qiladi, qalbning tavakkuli ma’no beradi”.

N. “N.M.”da yozishicha, F.A.J. bir kun Nishopurda Abu Usmon Hiriyning rikobida (jilovida) borayotgan bir paytda, yomg‘ir yog‘ib, yer balchiq bo‘ladi. F.A.J.ning, ko‘nglidan kechadiki, “ul otlig‘ ne bilgayki, maning holim bu bolchuqda nechukdur? “ Lahza o‘tmay, shayx otdin tushib, “Abu Ja’farg‘a ayttiki, kel, bu otni min! Abu Ja’far istig‘for qildikim, nechuk andog‘ bo‘lg‘ay?”. Shayx uni xohlasa, xohlamasa, otga mindirib, “g‘oshiyasi (yopinchig‘i)ni “egniga solib, oning jilovida bordi”. Abu Ja’far xijil bo‘lub, otdin tushdi. Shayx dedi, ey Farg‘oniy, sen otlig‘, men ollingda yayog‘ yururda holing ne erdi? Dedi: Ey shayx, so‘rmag‘il. Shayx dedi: men ham otlig‘ sen ollimda yayog‘ yururda menga ul hol erdi. Bu ish bila oni adab qildi”.

Xatibi Bag‘dodiy “Tarix-u Bag‘dod” asarida u haqda shunday deydi: “Muhammad bin Abdulloh Farg‘oniy so‘fiy Bag‘dodga keldi. Junayd bin Muhammadga ergashdi. Uning suhbatlarini yoydi, so‘zlaridan rivoyatlar qildi. Abul Abbos Muhammad binnul Xishob va boshqa so‘fiylar undan (Abu Ja’far Farg‘oniydan) hikoyatlar qilishgan. Abul Abbos Muhammad binnul Xishob Muhammad bin Abdulloh Farg‘oniy so‘fiyning shunday deganini naql qilgan: “Til bilan qilingan tavakkul da’voni keltirib chiqaradi. Qalb b-n qilingan tavakkul ma’noni keltirib chiqaradi”.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Al-Khaṭīb al-Baghdādī (d. 1071 CE) – Tārīkh Baghdād http://hadithtransmitters.hawramani.com/*

N.H., S.O‘.

FEODOSIY – Vizantiya imperatori. Uning hukmronligi 379-y.dan 395-y.gacha – 16 yil davom etgan. F. ichki va tashqi siyosatda ehtiyotkorlik b-n yo‘l tutgan, xususan, Sosoniylar saltanati b-n yaxshi munosabatlar o‘rnatishga intilgan. U 387-y. da Sosoniy hukmdor Shopur III b-n ittifoq tuzishga erishgan. Ular o‘zaro kelishuv asosida Armanistonni bo‘lib olganlar. Bundan tashqari, ular o‘rtasidagi bitimda Shopur III ga imperator F.ning o‘g‘liga vasiylik huquqini beruvchi modda ham bo‘lgan.

Mazkur davrda Rum va Eron o‘rtasida mavjud bo‘lgan o‘ziga xos munosabatlarga N. ham e’tibor qaratgan. U o‘zining “T.M.A.” asarida bu masalaga maxsus to‘xtalib o‘tadi. N.ning fikricha, ikki davlat o‘rtasidagi bunday yaqinlik va hamjihatlik Sosoniylarning o‘sha paytdagi hukmdori Shopur binni Shopur (Shopur III) ning yaxshiligi tufayli yuzaga kelgan. Bu haqida N. shunday yozadi: “Shopur binni Shopur bag‘oyat atvori, husni va axloqi mustahsan kishi erdi. G‘oyat yaxshilig‘idin Rum podshohini o‘ziga mute’ qilib erdi...”. Bundan tashqari, N.ning yuqoridagi so‘zlari yana bir diqqatga sazovor ma’lumotni o‘z ichiga oladi, ya’ni N.ning fikricha, Rum va Ajam o‘rtasidagi

munosabatlar ittifoqchilik emas, tobe'lik munosabati bo‘lgan ("Rum podshohini o‘ziga mute' qilib erdi").

N. asarida F.ning o‘g‘liga vasiylik masalasi haqida ham batafsil ma'lumot berilgan. Bunda N. vasiylik imperatorning (uni N. bir o‘rinda Rum podshohi, ikki yerda "qaysar" deb atagan) iltimosi b-n tayinlanganini ta'kidlaydi. U imperator tilidan shunday so‘zlarni keltiradi: "Men qaribmen, dag‘i umrumg‘a e'timodim yo‘qtur va o‘g‘lum kichikdur. Bir kishig‘akim, sening e'timoding bor, yiborkim, Rumda saltanat qilsun. O‘g‘ulim ulg‘aysa mulkni ang‘a topshurg‘ay". "T.M.A."dagi ma'lumotlar yana bir masalaga oydinlik kiritadi. Gap shundaki, imperator F. ning o‘g‘li Arkadiyga vasiy, deb e'lon qilingan Eron shohi Shopur III mazkur bitim tug‘ilgandan bir yil keyin, F.dan oldin (Feodosiy 395-y. o‘lgan) 378-y.da vafot etgan. Shunday ekan, vasiylik nima bo‘lgan? Bu haqida manbalarda ham, tarixchilarning tadqiqotida ham hech narsa deyilmaydi. N.da esa bunga javob bor. Uning yozishicha, Shopur III o‘z tomonidan Shervin degan ishonchli kishisiga bu vazifani topshirgan. U Rumga borib, F. qaysar vafotidan keyin uning o‘rnini egallagan. Qaysarning o‘g‘li voyaga etgandan so‘ng hokimiyatni unga topshirgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Ковалев С.И. История Рима. – Л., 1986; Лев Гумилев. Древние тюрки. – М., 2008; Ражабов Қ. ва бошқалар. Жаҳон тарихининг муҳим саналари. – Т., 2011.*

Q.E.

FERUZ (Taxallusi; to‘liq ismi: Muhammad Rahimxon II (1845–1910) – ma'rifatparvar hukmdor va shoir. Xivada Said Muhammad oilasida tavallud topdi. Qo‘ng‘irotlar sulolasidan. Xiva shahridagi Arab Muhammadxon madrasasida tahsil ko‘rgan, davlat, huquq ilmini zamonasining mashhur mudarrisi, shoir va olim Doiy, Yusufxo‘ja oxun va boshqalardan o‘rgangan. Ilmi adab, fasohat va balog‘at, tarix va tarjimadan esa unga o‘z davrining mutafakkir adibi Ogahiy saboq beradi. Uni boy va rang-barang Sharq so‘z san'atining nozik va murakkab sirlari b-n oshno qiladi. Uning fan va madaniyat, adabiyot va san'at homiysi bo‘lib etishishida bu saboqlarning o‘rni va ta'siri shubhasiz.

Xiva adabiy muhitiga N. ijodining ta'siri nihoyatda kuchli edi. Bu muhit qalam ahli g‘azal mulkining sultonini o‘zlariga ijod yo‘lida yo‘lchi yulduz deb bilganlar va unga qarab bo‘y o‘lchaganlar. Bu ilhombaxsh ta'sirdan F. ijodi xoli emas. U buyuk salafining "Paydo", "Aylab", "Ekan", "Netay" radifli g‘azallariga tatabbu' qilgan, N.ning badiiy kashfiyotlari ta'sirida qator baytlar ijod qilgan. M-n, N. mashhur "Qaro ko‘zum" g‘azalida ma'shuqaning oshiq ko‘zi qorachig‘idan joy olishga da'vat qilgan edi. F.ning bir necha baytlarida ayni tashbehning o‘zgacha talqinini ko‘ramiz. N. o‘z baytida "Ey qora ko‘zlik sevgilim, insoniylik shevasini ko‘rgizib qoshimga kel-u qorachiqlarim kabi ko‘zim ichida vatan tut", – deb lutf etgan edi:

Qaro ko‘zum, kel-u mardumlig‘ emdi fan qilg‘il,
Ko‘zum qarosida mardum kibi vatan qilg‘il.

Ma'lumki, ikki kishi yuzma-yuz turganidagina ular bir-birining qorachig‘ida aks etadi. Biror kishining ko‘z qorachig‘ida vatan tutish, ya'ni doimiy aks etish u-n esa bir umr uning yonida turish, boshqacha aytganda, u b-n birga yashash kerak.

F. "Ey nozanin, firog‘ing nihoyatda cho‘zilib ketdi – kelib ko‘ksim uzra vatan tutsang, nima bo‘lar edi", – deya ayni ayni baytga hamohang misralar ijod qiladi:

Furqating Feruzga bo‘ldi uzoq, ey nozanin,
Ne bo‘lur endi kelib ko‘ksi uza qilsang vatan.

Boshqa baytida esa ayni tashbehni rivojlantirib, uning yangi qirrasini ochadi: "Agar qorachiq kabi ko‘zimda manzil tutsang, nozik vujuding kiprigim nishidan ozurda bo‘lmasmikan deb xavotirdaman":

Bo‘lmag‘ay ozurda nishi
kirpikimdin deb taning,
Qo‘rqaram, gar ko‘z uyin mardum
kibi qilsang vatan.

Ko‘rinib turganidek, F. N.ning ohorli tashbehlar shodasiga o‘zining munosib ma’no durlarini ham qila olgan.

N. ijodida jahon ra’nosining bevaligi, unga ko‘ngil bog‘lash xatoligi haqidagi baytu misralarning butun bir silsilasiga duch kelamiz. F.ning qator baytlarida ham ayni jihatdan buyuk salafiga hamohanglikni ko‘ramiz. M-n:

Bevafodur bu jahon ra’nosi, billah, ey ko‘ngul,
Ko‘rgan ermastur burungilar vafo davrondin.
Bu jahon ra’nolarig‘a bo‘lma maftun, ey ko‘ngul,
Borchasidur besabotu bebaqo-yu bemador.

F.ning tatabbu’lari ham garchi N. g‘azallari ta’sirida. ulardan ilhomlanib yaratilganiga qaramay, o‘zi asos bo‘lgan g‘azalning soyasiga aylanib qolmagan, bil’aks bir g‘azal bag‘ishlagan ilhom mahsuli o‘laroq o‘ziga xos ohorli g‘azal dunyoga kelgan. Misol tariqasida N. o‘z g‘azali matla’sida “Ma’shuqa nutqi nash’asidan o‘lganni tiriltiradigan sharbat tayyorlab, Masihday jonbaxsh so‘zi b-n labi o‘likni tiriltiradi”, – deb lutf etsa:

O‘lukni tirguzur la’ling Masihoso kalom aylab,
Takallum choshnisin sharbati yuhyil-izom aylab, –

F. ning dilbari oqshom chog‘i odob b-n salom aylab kelib, Masihday jonbaxsh so‘zi b-n oshig‘ining o‘lim jismiga jon bag‘ishlaydi:

Bu oqshom keldi ul dilbar adab birla salom aylab,
O‘luk jismimga jon berdn masihoso kalom aylab.

Tatabbu’ning faqat matla’sigina o‘zi asos bo‘lgan g‘azal b-n muayyan umumiyliklarga ega – qolgan baytlar o‘ziga xos ohorlilik kasb etgan va bu uni yangi g‘azal deb baholashga asos beradi.

F. N. kashf etgan “xazon sipohi” iborasi ta’sirida “xazon eli” sifatini ijod qiladi:

Doim vujudi bo‘lgay emin xazon elidin,
Har kimki, yori bprla ichsa bahor sharbat.

Ma’lum bo‘ladiki, N. F.ga she’riyat yo‘lida ustozlik qilgan so‘z san’atkorlaridan biri hisoblanadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Муҳаммад Раҳимхон Феруз. Не бўлди, ёрим келмади (Ғазаллар). – Т., 1991; Муҳаммад Раҳимхон Феруз. Элга шоҳу ишққа қул (Девон). – Т., 1994. Матёзов Ш. Феруз лирикаси. – Урганч, 1994; исмоилова Г. Хоразмнинг фозил фарзанди // Муҳаммад Раҳимхон Феруз. Элга шоҳу ишққа қул (Девон). – Т., 1994.*

E.O., D.G‘.

FERUZSHOHBEK (Amir Jaloluddin Feruzshoh) – (vafoti 1445-y., Hirot) Shohrux Sulton hukmronligi davrida faoliyat ko‘rsatgan ulug‘ beklardan, lashkarboshi va davlat arbobi. Shohrux mirzoning alohida ishonch va e’tiboriga sazovor bo‘lgan. Shu sababli ko‘p mas’uliyatli ishlar uning zimmasiga yuklatilgan. Jumladan, 1405-y.da Hirot shahrining mudofaa devorlarini va darvozalarini tiklashga ehtiyoj tug‘ilganda bu ish F.ga topshirilgan va u bu vazifani a’lo darajada ado etgan. Lashkarboshi sifatida Shohruxning Mozandaronga (1407), Seystonga (1408), Qandahorga (1417), Iroq va Ozarbayjonga (1420) qilgan yurishlarida ishtirok etgan. Hirot Jome’ masjidida Shohrux Sultonga suiqasd qilinganda ham F. u b-n birga bo‘lgan. Shohrux mirzo taxtiravonga o‘tirmoqchi bo‘lgan, lekin jarohatning uncha kuchli emasligini ko‘rgan F. otga minishni maslahat bergan. Chunki taxtiravonda olib ketilsa, haloyiq Sultonni o‘lganga chiqarib qo‘yishi va katta to‘s-to‘polon ko‘tarilishi mumkin edi (1427). F. davlat miqyosida fikrlaydigan siyosiy va harbiy arbob edi. U kuchayib borayotgan qoraquyunli sulolasining temuriylar saltanatiga xavf solishi mumkinligini mulohaza qilib, ularga qarshi yurish qilish tashabbusi b-n chiqqan va boshqa ko‘plab beklar, harbiylarning qarshiligi-

ga qaramay, Shohrux Sultonni ko‘ndirgan va qo-raquyunlilarga zarba berilgan (1435). 1440-y.da Alouddin Alika ko‘kaldosh vafot etgandan so‘ng F. amir ul-umaro (sohib ixtiyor) bo‘lgan va umrining oxirigacha shu vazifada turgan.

F.ning nomi N.ning “M.N.” asarida tilga olingan. N. asarining beshinchi majlisida Davlatshoh haqida ma’lumot berar ekan, uning F.ning qarindoshi ekanligini aytib o‘tadi va shu munosabat b-n F.ning shaxsi haqida ham so‘zlar bitadi: “Feruzshohbekning muknat va azamati xud olam ahli qoshida gunashdin ravshanroqdur, ta’rifqa ehtiyoj ermas”.

F.ning nabirasi amir Abduholiq N. b-n bir davrda Sulton Husayn Boyqaro saroyida xizmat qilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Абдураззоқ Самарқандий. Матлайи саъдайн ва мажмайи баҳрайн. 2- жилд, 2-қисм. – Т., 2008.*

Q.E.

FIRDAVSIY (934−1030, Tus) − fors-tojik shoiri va mutafakkiri. Tus shahri yaqinidagi Boj qishlog‘ida kambag‘allashib qolgan zamindor oilasida tug‘ilgan. Boshlang‘ich ta’limni qishlog‘idagi maktabda olib, keyin Tus va Nishopur shaharlaridagi madrasalarda tahsilni davom ettiradi. Zamonasining barcha asosiy ilmlarini egallab, arab va pahlaviy tillarini chuqur o‘rganadi. U Eron, Turon, Yunon va Hindiston olimlarining turli sohalardagi asarlaridan yaxshi xabardor bo‘lgan. O‘z davrining qomusiy olimi bo‘lib yetishgani u-n ham uni hakim deb ulug‘lashgan.

Eron va Turon xalqlarining qariyb to‘rt ming yillik tarixi yuksak mahorat b-n badiiy talqin qilingan 60 ming baytdan iborat “Shohnoma” ustida F. 35 yil ter to‘kadi. Tadqiqotchilar asarni uch qismga bo‘ladilar: birinchi bo‘limda shoir eng qadimiy afsona va rivoyatlarni qayta ishlab, nazm ipiga tergan bo‘lsa, ikkinchi bo‘limda xalq qahramonlari haqidagi qissa va jangnomalarga yangi va mangu hayot baxsh etadi, uchinchi bo‘limda tarixiy shohlar hayotini qalamga oladi. “Shohnoma” eng qadimgi davrlardan boshlanib, sosoniylar shohi Yazgird III davrida arablarning Eronga bostirib kirishi b-n yakunlanadi. “Shohnoma” hajmi, mavzu ko‘lami, obrazlar olami, qahramonlarning ko‘p va xilma-xilligi, g‘oyaviy motivlar va ko‘tarilgan masalalar jihatidan jahon adabiyotidagi eng katta epik asardir. 100 dan ortiq katta-kichik dostonlardan tashkil topgan bu muazzam asarda mingdan ziyod turli darajadagi personajlar ishtirok etadi.

E.Ochilov ruboiylaridan namunalar tarjima qilgan.

N. “Shohnoma”dan yaxshigina xabardor bo‘lgan va ko‘plab asarlarida F. nomini hurmat b-n tilga oladi, uni buyuk so‘z san’atkorlaridan biri sifatida ulug‘laydi, bu muazzam asarning mashhur qahramonlarining nomini keltirib o‘tadi. U Samarqanddan o‘z ustozi Sayyid Hasanga yo‘llagan she’riy maktubi − masnaviysidayoq o‘z iste’dodiga yuqori baho berib, F. o‘ttiz yilda yozgan asarga o‘xshash asarni men o‘ttiz oyda yoza olishga quvvatim etadi, degan edi. Ushbu masnaviyda F.ni masnaviy maydonining pahlavoni, deb ta’riflasa, “M.L.”da “masnaviyda ustodi fan” deb e’tirof etadi. “M.N.”-da esa unga “malik ul-kalom” sifatini beradi. “X.” xotimasida ko‘rgan tushini tasvirlar ekan, salafini buyuk so‘z ustalari qatorida zikr etadi va uning qo‘lini o‘pish sharafiga muyassar bo‘lganligidan mamnunligini bayon qiladi:

Chu Sa’diy Firdavsiy-u Unsuriy,
Sanoiyu Xoqoni-yu Anvariy.

Taaddudda muhtoji tahsil erur,
Vale bo‘lsa tafsil, tatvil erur.

Bori dastbo‘sig‘a toptim sharaf,
Olib yondilar meni kelgan taraf.

“T.M.A.” asarini yaratishda esa ko‘plab tarixiy asarlar qatorida F. “Shohnoma”sidan ham foydalangan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик,*

6-8-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Абулқосим Фирдавсий. Шоҳнома. 3 жилдлик (Ш.Шомуҳамедов, Назармат, Ж.Жабборов тарж.). – Т., 1975–1977; Абулқосим Фирдавсий. Шоҳнома. – Т., 1984; Абулқосим Фирдавсий. Фаридун. – Т., 1987; Абулқосим Фирдавсий. Рустам ва Суҳроб. – Т., 1984; Абулқосим Фирдавсий. Шоҳнома (Сайланма). – Т., 2012; Абдураҳмон Жомий. Баҳористон (Ш.Шомуҳамедов тарж.). – Т., 1997; Алишер Навоий. ТАТ. 9-жилд. – Т., 2011; Шодиев Э. Алишер Навоий ва форс-тожик адиблари. – Т., 1989; Айний. Фирдавсий ва унинг "Шоҳнома"си ҳақида // Асарлар. 8-жилд. – Т., 1967; Шомуҳамедов Ш. Шоҳкитоб ва унинг муаллифи. – Т., 1992; Ҳомидий Ҳ. "Шоҳнома"нинг шуҳрати. – Т., 1991; Улуғзода С. Фирдавсий. – Т., 1994; Фирдавсий. Рубоийлар // Минг бир рубоий. – Т., 2009; ziyo.uz.

E.O.

FIROR – xalq-u xaloyiqdan va vositalardan Haqqa qarab qochish. F. uch qismga ajartilgan: 1. Avomning firori. Bu – tanballikdan harakat va g‘ayratga, torlikdan kenglikka tomon qochish demak. 2. Xavosning (xos kishilarning) firori. Bunda xabardan shuhudga, rusumdan usulga, nafsoniy lazzat va huzurlardan tajrid ila najotga qochiladi. 3. Axosning firori. Umuman, mosuvodan Allohga F. etish. N. g‘azallaridan birida bu holni shunday so‘zlar b-n ifodalangan:

Parim bo‘lsa uchub qochsam
ulustuin to qanotim bor,
Qanotim kuysa uchmoqdin,
yugursam to hayotim bor.
Chiqib bu dayrdin Isog‘a
nevchun hamnafas bo‘lmay,
Bihamdilloh, tajarrud birla
himmatdin qanotim bor.

Ikki dunyo – bu dunyo va oxirat duyosi; zohiriy – ko‘zga ko‘rinadigan, botiniy – ko‘zga ko‘rinmas g‘ayb olami.

Ikki dunyodin agar kechsa Navoiy, ayb emas,
Har qachonkim, ul buti xummor alidin ichsa qo‘sh.

Ter – 1. Har turli sabablarga ko‘ra inson vujudida paydo bo‘ladigan bir suv. 2. Sharq adabiyotida ishlatilgan go‘zallik, latofat, hayo va sadoqat belgisi.

Har yon ul yuzda ter oqizdingmu,
Yo oqar mehr chashmasidin su.

2. Diniy-irfoniy ma’no va haqiqatlar aks ettirilgan ramziy timsol. Naqlga ko‘ra, Muhammad (s.a.v.) Me’roj tunida Haq taolo huzuriga etib borishda bir qancha qiyinchiliklarga duch kelgan va Rasulullo (s.a.v.) b-n birga Jabroil hamda Buroqdan ham tomchi-tomchi ter oqqan. Buroqning teridan yer yuzida sariq gul, Jabroilnikidan oq gul, Muhammad (s.a.v.)ning muborak terlaridan esa qizil gul paydo bo‘lgan ekan. Bunday naqllardan ilhomlangan tariqat ahli sayri sulukda terga ham alohida ahamiyat berishgan.

Yerga sochqon ter fano dashtida solik jabhasi,
Gavhari maqsudidin har dam nisordur yana.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Янитарзий А. Девон шеърида наът. – Анқара, 1993.; Ҳаққул И. Навоийга қайтиш. – Т., 2007.*

I.H.

FIROQIY ABULBARAKA (XV asrning ikkinchi yarmi – XVI asr boshi) – movarounnahrlik shoir va olim. Asli shahrisabzlik bo‘lib, xojalar avlodidan. Mansabidan bo‘shatilgandan so‘ng Hirotga kelgan. Lekin u yerda ko‘p tura olmagan va o‘z yurtiga ketgan. Bobur Samarqandni olganda (1500) F.A. Shahrisabzdan Samarqandga kelgan. Asosan, fors-tojik tilida ijod qilgan. G‘azallar va qasidalar yozgan. Hasanxoja Nisoriyning "Mu-

zakkir ul-ahbob” tazkirasida F.A.ning quyidagi matla’ b-n boshlanuvchi g‘azali keltirilgan:

Ey shoxi gul, chu sarve qad kashidan,
Bar bargi gul xatti zi zumurad kashidan.

Bobur bergan ma’lumotlardan F.ning o‘zbekcha she’rlar ham yozgani ma’lum bo‘ladi. U A. ning bir ruboiysini keltirib o‘tgan.

N. F.A.ni “M.N.”ning oltinchi majlisiga kiritgan. Lekin u haqida faqat salbiy fikrlar bildirgan. N. birinchi navbatda uning yomon fe’l-atvorli kishi ekanligini ta’kidlaydi. N.ning yozishicha, u Shahrisabzda qozilik qilganda, juda ko‘p kishilar podshoh huzuriga uning ustidan shikoyat qilib kelganlar va shu sabali F.A. mansabidan bo‘shatilgan.

Tazkirada A. ijodidan namuna berilmagan, faqat uning sha’niga bitilgan bir hajviy bayt keltirilganki, u F.A.ning qiyofasini yaqqol ko‘rsatadi:

Devi shayton sifat Abulbaraka.
Bod joyash ba haftumin daraga.

Tarj.: Shaytonsifat dev Abulbarakaning joyi yettinchi do‘zzax bo‘lsin.

N. Xoja Hovand zikrida ham F.A. b-n bog‘liq bir voqeani bayon qilgan. Bundan N.ning yuqorida A.ning shaxsiyati haqida yozgan so‘zlari to‘g‘riligi va F.A.ning chindan ham qabih ishlar qiluvchi bir inson ekani ma’lum bo‘ladi. N.ning yozishicha, F.A. Hirotda turgan vaqtida Darvesh Husayn b-n urishib qolgan va uning ko‘ngliga ozor berish u-n qorong‘i paytda mozorga borib, Piri Sesadsola qabrini bulg‘agan. Bu voqeani eshitgan Xoja Hovand shu munosabat b-n bir bayt yozgan:

On javonmargeki, u bar Piri Sesadsola rid,
Pir agar gardad, na gardam hech pirero murid.

Tarj: U juvonmarg Piri Sesadsola qabrini bulg‘adi, agar shu odam pir bo‘lib qolgudek bo‘lsa, men hech bir pirga murid bo‘lmayman.

F.A.ning o‘g‘li Xoja Ayyub ham shoir bo‘lgan. Hasanxoja Nisoriy o‘z tazkirasida uni zikr etgan va bir g‘azalini keltirgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ҳасанхожа Нисорий. Музаккир ул-аҳбоб. – Т., 1993; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 2011.*

Q.E.

FIROG‘IY (t.v.e.y.n.) – N. asarlariga lug‘at tuzgan o‘zbek olimi. Maxdixonning “Sangloh” asarida qayd etilishiga qaraganda, XVI–XVII asrlarda yashab, ijod etgan. Ammo F. tuzgan lug‘at bizgacha yetib kelmagan.

Mirza Maxdixon o‘z asarida “Badoyi al-lug‘at”, “Abushqa” va Nadr Ali, ikkinchi Rumiy, Nasiriy lug‘atlarida yo‘l qo‘yilgan 246 ta xato qatorida F. yanglishgan o‘rinlarni ham qayd qilgan. M-n: F. N.dagi *terak* so‘zini boshqa bir she’rda *pirak* deb o‘qiydi. *Pirak* – bu “kumush varag‘idirki, ayollar undan ignalar yasab, sochlariga qadab qo‘yadilar. Ular hamisha harakat qilib turadilar”. Shunday bo‘lsa-da, Mirza Maxdixon *aziqg‘an, o‘tganmak (taqlid qilmoq), uch, o‘g‘ur (maqsad, saodat), o‘kta (behuda, bir, biror, taqa, tavshalg‘udek (charchamoq), tustug‘an (bo‘yinli ko‘za), sag‘inib (eslab), tiymoq, jiba (harbiy kiyim), jubulg‘an (chirigan)* kabi so‘zlar izohida F. lug‘atiga murojaat qilgani ma’lum.

Ad.: *Мухиддинов К. “Санглах” Мирзы Мухаммада Махдихана: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1971; Умаров Э. “Бадайи ал-лугат” и “Санглах” как лексикографические памятники и источники изучения староузбекского языка: Автореф. дисс. ... д-ра. филол. наук. – Т., 1989; Хасанов Б. Принципы составления рукописных словарей к произведениям Навои: Автореф. дисс. ... д-ра. филол. наук. – Т., 1989.*

E.U., S.O‘.

FIRQADON – Shimoliy qutb yaqinidagi ikki yorug‘ yulduz. Xondamir “Xulosat ul-axbor” asarida N.dan himmat ko‘rgan va hidoyat topgan Mavlono Fasihiddin Sohib Doro shaxsi, martabasiga nisbatan ramziy ma’noda qo‘llagan

jumla: “Martabasi hidoyatli Amir Alisherning tarbiyasi orqasidan F.dan yuqorilab ketdi va shu sababdan u Sohibqiron Sulton Husaynning va nomdor shahzodalarning sirdosh mahramiga aylandi”.

Ad.: *Навоий замондошлари хотирасида. – T., 1986.*

B.R.

FISOG‘URS – (Fishog‘urs hakim, Pifagor, taxminan mil. av. 580, Samos – 500, Metapont) – yunon matematigi, faylasufi. U 530-y.dan Janubiy Italiyaning Krotone, keyinroq Metapont shahrida yashagan. Sokratgacha bo‘lgan faylasuf bo‘lib, matematikaning otasi va falsafiy oqim Pifagorizm asoschisi hisoblangan. Krotenda falsafiy maktab, siyosiy partiya va diniy birodarlikni mujassamlashtirgan ittifoq (pifagorchilar ittifoqi) tuzadi. Pifagor falsafasida son barcha narsaning mohiyati, olam esa sonlar va ular orasidagi munosabatlarning garmonik sistemasi, degan g‘oyalar ilgari surilgan.

U o‘z davrining arifmetikasi, geometriyasi, kosmologiyasi va musiqa nazariyasining matematik tamoyillarini rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan.

F. to‘g‘risida N. “T.A.H.” asarining “Hukamo zikri” qismida alohida “Fishog‘urs hakim” nomli fiqra yozgan. N.ning yozishicha, F. “Luqmoni hakimning shogirdidur. Ba’zi debdurlar, Gushtosb zamonida erdi. Musiqiy ilmining voze’idur. Andin burun bu fanni tadvin qilg‘on kishi ma’lum emas. Va soz ham aning muxtari’idur va kamolda ta’rifdin mustag‘niy. Aning so‘zlaridindurkim, kishi o‘z madhin desa, chin dog‘i bo‘lsa, nopisanddur va o‘tkonlar bila ont ichmak yolg‘on nishonasidur va musibatqa sabr qilmoq shamotat qilg‘uchining musibati”. N.ning ma’lumotiga ko‘ra, F. Luqmoni hakimga shogird. U peshdodiy hukmdorlardan Gushtosb zamonida yashagan. Musiqa ilmi bo‘yicha voizlik qilgan. Musiqa ilmini fan darajasiga ko‘tarilgan va yangi usullar kashf qilgan. N. fiqrada hakimning ikkita hikmatini keltirgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – T., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – T., 2011; https://uz.wikipedia.org/wiki/Pifagor.*

B.R.

“FISQ – KUFRI NIHONIY DEMAK...” – N.ning “N.Sh.” devonidan o‘rin olgan qit’a janriga mansub to‘rtlik.

Fosiq men-u kofiri nihoni,
Ka’ba safaridir mango hayf.
O‘zni buki yaxshi ko‘rguzurmen,
Billahki, menga kaliso hayf.

Qit’aga shunday sarlavha qo‘yilgan: “O‘zining kufri nihoniysin oshkoro va fisqi pinhoniysin paydo qilg‘ani”. Demak, bu she’r yashirinni oshkor qilish, oshkor qilinganni esa e’tirof aylash ehtiyojidan tug‘ilgan. Gap shundaki, bunday oshkoralikka yuz burish va favqulodda mardonalik b-n o‘zining siyratiga nazar tashlash yoki o‘zining ustidan o‘zi hukm chiqarish hammaning ham qo‘lidan kelavermaydi. Shuning u-n she’rning ilk satridagi “Fosiq men-u kofiri nihoni”, degan so‘zlar b-n tanishgan oddiy o‘quvchida bir qadar g‘alati holat paydo bo‘lishi mumkin. Chunki inson tabiatida o‘zining ayb va axloqiy kamchiliklariga iqror bo‘lishdan ko‘ra, ularni yashirish, qanday qilib bo‘lsa ham noqisliklarini xaspo‘shlash istagi doimo ustunlikka erishib kelgan. She’rning umumiy mantig‘i ana shu istakni tubdan inkor etadi. Chunonchi, unda, eng avvalo, fisq qoralangan. Fisq-u fujurga ko‘ngildan o‘rin bergan kimsalarga fosiq deyiladi.

N.ning e’tirofi bo‘yicha, fisq ham kufr, fosiq esa uni nihon saqlaguvchi kimsa. Bunday holatda, hatto “Ka’ba safari”dan ham foyda etmaydi.

G‘arbda paydo bo‘lgan eksiztensializm ta’limotining taniqli vakillaridan biri bo‘lgan Jan

Pol Sartr maqolalaridan birida, “Bizni insonning tubanligini ta’kidlashda, hamma joyda uning yoqimsiz, qabih tomonlarini ko‘rsatib, ko‘p yoqimli va go‘zal jihatlariga e’tibor bermaslik, insonning yorug‘ tomonlaridan yuz burishda ayblaydilar”, deydi. Shunga yaqin ayb Sharqda malomatiylik deb nom olgan maslak vakillariga ham qo‘yilgan. Chunki ular ham qanday fazilatlarga sohib bo‘lish haqida emas, asosan, qaysi qusur va noqisliklardan xalos bo‘lish xususida bahs yuritishgan. Biroq bu ish inson taqdiriga juda chuqur qarash, yaxshi fazilatlarning ravnaqi bevosita yomon axloqni-da tanishga bog‘liq, degan ehtiyoj b-n amalga oshirilgan. Shu ma’noda N. qit’asidagi lirik qahramon bir malomatiy qiyofasida ko‘zga tashlanadi va fosiqlikning ildizini “o‘zni yaxshi ko‘rgazmoq”, ya’ni xudparastlikda, deya ta’kidlaydi:

O‘zni buki yaxshi ko‘rguzurmen,
Billahki, menga kaliso hayf.

O‘zni yaxshi ko‘rsatish, sirtdan qaralganda, oddiy harakat yoxud tabiiy intilishga o‘xshab tuyulishi mumkin. Lekin u ko‘pincha va ko‘p vaziyatlarda ujb va riyodan yuzaga keladi. Riyo joy topgan ko‘ngil borki, hech istisnosiz barchasi diniy tuyg‘u va sog‘lom e’tiqoddan yiroqlashadi. Aks holda N. hazratlari:

Billahki, menga kaliso hayf, –

deb yozmasdilar.

Diniy hayot talablari – oson va osonlik b-n amalga oshiriladigan talablar emas. Diniy hissiyot kamoli u-n ko‘p ranj chekish lozim. Chinakam dindor – o‘zligini taniy olgan, rahmoniy xislatlar nima-yu, nafsoniy xususiyatlar nima – bularni bexato farqlaydigan va amalga oshiradigan, toat-ibodatidan ortiqcha mamnuniyatga berilmaydigan kishidir. Inson farzandi so‘zda, amalda (ishda) va holda riyodan qutilganda edi, olam allaqachon gulistonga aylangan bo‘lardi. Biroq hech qachon, bunaqa bo‘lmagan, bo‘lishi ham dushvor. Negaki, uni doimiy ravishda g‘aflat va hoyu havas ta’qib etadi. Doimiy ravishda u ma’nodan ko‘ra da’voga taslimdir. N.ning qit’asi ana shular haqida jiddiy fikr yuritishga chorlaydi. Bunday mushohada, ayniqsa, bugun har qachongidan ko‘ra zarur va nihoyatda ahamiyatlidir.

Ad.: *Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2011; Ҳаққул И. Касби камол ўзни танишдир. – Т., 2021; Ҳаққул И. Занжирбанд шер қошида. – Т., 2021.*

I.H.

FITRAT – Sharq mumtoz adabiyotini o‘rganishga birinchilar qatorida kirishgan va bu yo‘lda yirik tadqiqotlar yaratgan jadidchi. Uning “Navoiyning forsiy shoirligi ham uning forsiy devoni to‘g‘risida” maqolasi “adabiyot va san’at dunyosida eng teran qarash egasi” bo‘lgan mashhur Bobur Mirzoning “Navoiyning aksar forsiy abyoti sust va furuddir” degan ko‘pchilikka ma’lum fikrini qabul etkusi kelmas”ligiga bag‘ishlangan. Mazkur maqola F.ning N. haqida yozilgan eng chuqur tadqiqoti darajasida o‘z davrida va keyingi yillarda ham ahamiyat kasb etgan. N.shunoslikda uning forsiy adabiyotning ulkan vakili ekani hali tadqiq etilmagan bir paytda, nafaqat Foniyning, balki ushbu taxallusni qo‘llagan boshqa shoirlarning ijodini yoritishda ham salmoqli hissa qo‘shgan. Maqola ilk bor “Maorif va o‘qitg‘uchi” jurnalining 1925-y. 12-sonida (38-41-bet) chop etilgan. 1993-y. “Sharq mash’ali” ilmiy majmuasining 1-sonida qayta nashr etilgan (tabdilchi H.Boltaboyev).

Maqola qayta nashrga tayyorlanish jarayonida ilk nusxalari b-n solishtirilgan, unda keltirilgan N., Jomiy va boshqa forsigo‘y shoirlarning asarlaridan parchalar qiyosan o‘rganilgan. Mavjud tarjimalar (m-n, Sh.Shomuhamedov, M.Hasanning) ayni o‘sha baytlar izohlarida berilgan.

XV asr tazkiranavislik tarixidan chuqur xabardor F. N.ning forsiy merosiga Davlatshoh Samarqandiy (“Tazkirat ush-shuaro”), Abdurahmon Jomiy (“Nafohat ul-uns”), Som Mirzo (“Tuhfai Somiy”), Rizo Qulixon Hidoyat (“Majma ul-fusaho”), Husayn Voiz Koshifiy (“Tafsiri

forsiy”) kabi fors tazkiranavislarining fikriga tayangan holda baho beradi va shoirning forsiyda ham barakali ijod qilishi sabablarini “M.L.”dagi ma’lumotlar orqali asoslaydi: “Navoiy o‘n besh yasharlikdan qirq yasharlikkacha fors adabiyoti bilan kuchli suratda mashg‘ul bo‘lgan, zamonida mavjud fors devonlarining hammasini bo‘lmasa ham ko‘pini ko‘rgan. Mavlono Jomiydan boshlab, u zamonning eng katta fors shoirlari o‘z she’rlarini ko‘rsatgan, tuzatib berishini so‘raganlar”. F. bu fikrlar orqali N. fors adabiyotining chuqur bilimdoni va ijodkori, tanqidchi va tashiqchisi, “eng ulug‘ fors shoirlarining eng mashhur, eng qiyin asarlariga forsiycha javob yozgan usta bir san’atkor” ekanligini asoslaydi. F.ning bu kuzatishlari keyinroq boshqa n.shunoslar tomonidan davom ettirilib, maxsus tadqiqotlar yordamida isbot etilgan (garchi bularda Fitratning muborak nomi yodga olinmagan bo‘lsa ham).

F. N.ning ko‘p forsiy qasidalari javobiya tarzida bitilganligini, jumladan, “Tuhfat ul-afkor” qasidasi Xusrav Dehlaviyning “Bahr ul-abror” hamda Abdurahmon Jomiyning “Lujjat ul-asror”iga o‘xshatma tarzida yozilganligini ta’kidlaydi va bu orqali uning qasidanavislik mahoratiga baho beradi. Olim maqolada “M.L.” dagi shoirning “Ruh ul-quds”, “Ayn ul-hayot”, “Minhoj un-najot”, “Qut ul-qulub”, “Fusuli arbaa” singari o‘z qasidalari haqidagi ma’lumotlarga ham murojaat qiladi. “Sittai zaruriya” turkumi tarkibidagi har olti qasidaning dastlabki baytlarini keltirib, N. forsiy so‘z o‘yinlarining ham ustasi bo‘lganligini ta’kidlaydi. Hatto fors mumtoz adabiyotida qasidanavis sifatida tanilgan Jaloliddin Salmon Sovajiy (1300-1375)ning tarsi’da bitilgan qasidasining quyidagi baytiga nisbatan Navoiy “tarsi’ tugal emas”, deya o‘rinli e’tiroz bildirganligini qayd etish orqali shoir fors adabiyotining nozik bilimdoni va munaqqidi bo‘lganligiga ishora qiladi:

Safoyi safvati ro‘yat birext obi bahor,
Havoyi jannati ko‘yat bibext mushki tator.

F. mazkur maqolasida N.ning “fors tilida bo‘lgan iqtidorini”, forsiy merosini keng suratda o‘rganish, tadqiq etish, uning fors shoirlarining qaysilaridan ko‘proq ta’sirlanganini aniqlab olish, “forsiycha haqiqiy devonini axtarish” adabiyotimiz tarixi u-n juda muhimligini e’tirof etadi. Uning N. forsiy merosining boy va sermazmun ekanligini asoslashga bag‘ishlangan mazkur maqolasida qarashlarni ishonchli ma’lumotlar orqali dalillash rad etib bo‘lmaydigan darajada kuchli. Bu F. ilmiy uslubining asosiy xususiyatidir. Yetuk adabiyotshunos ilmiy asarlarining hali-hanuz o‘z qimmatini yo‘qotmaganligi omillaridan biri, shubhasiz, ana shu hayotbaxsh fazilatga egaligidir.

Ushbu manbada ikki “Foniy” ko‘rsatilgan bo‘lib, ularning biri F. nazarda tutgan Muhammad Muhsindir. Bu kabi fikrlar keyinroq S.Ayniyning “Navoiy va tojik adabiyoti” nomli maqolasida berilgan.

F. ga 1991-y. Navoiy nomidagi Davlat mukofoti berildi.

Ad.: *Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Исҳоқов Ё. Навоий ва Хусрав Деҳлавий. Китобда : “Навоий ва адабий таъсир масалалари”. – Т., 1968; Айний С. Асарлар. 8-том, – Т., 1967; Мирзоев А. Фоний ва Ҳофиз. – Душанбе,1966; Навоий ва Жомий (тўплам). – Т., 1989.*

N.B.

FIQH – Islom huquqshunosligiga oid atama. Fiqh daqiq fahmni, ya’ni bir narsani nozik joylarigacha yaxshi tushunishni anglatadi. Shariat istilohiga ko‘ra, shar’iy dalillardan far’iy hukmlarni chiqarishga “fiqh” deyiladi. Ilmi F. islom dinining yo‘l-yo‘riqlari, qonun-qoidalari to‘g‘risidagi huquq ilmi, islom qonunshunosligidir. Muhammad (s.a.v.) ham F.ga yuqori baho bergan. Chunonchi, Muoviya roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Nabiy sollallohu alayhi vasallam: “Alloh kimga yaxshilikni iroda qilsa, uni dinida faqih qilib qo‘yadi”, – dedilar.

N. lirik va nasriy asarlari matnida F. atamasini ham ilm-fan ma’nosida mahorat b-n qo‘llagan.

N. “F.Sh.”ning Shohg‘arib Mirzoga bag‘ishlangan bobida hukmdor har narsaning mohiyatini bilish u-n F., hadis, tafsir, tib, tarix, hikmat kabi ilmlarni puxta egallashi kerakligini shahzodaga uqtirar ekan, diniy ishlardan bo‘lmish F.ga alohida e’tibor qaratadi:

Bu din ilmiki, xoma qildi tahrir,
Erur fiqhu hadisu so‘ngra tafsir.

“L.M.”ning Husayn Boyqaroga bag‘ishlangan bobida ham F.ning ahamiyatini yuksak baholab, sultonni bu ilm bilimdoni sifatida ko‘rsatadi.

“S.S.”ning Abdurahmon Jomiyga bag‘ishlangan 7-bobida ustozini F. donishmandi sifatida ta’riflaydi

“M.N.”dagi Xoja Fazlulloh Abullays Samarqandiy zikrida *fiqh* fan ma’nosida qo‘llangan bo‘lsa, Mir Ixtiyoriddin zikrida uning ikki fandagi salohiyatini qadrlab, “Arabiyati va fiqhi ta’rif qilg‘uncha bor”, deb yozar ekan, olimni arabiyat fanida qanchalik mohir va bilimdon bo‘lsa, F. ilmida ham shunchalik bilimdondir, deb kitobxonga tanishtiradi: “Mir Ixtiyoriddin yaxshi tab’lig‘, yaxshi tavrlig‘ yigitdur... Arabiyat va fiqhi ta’rif qilg‘uncha bor, derlarki, bir tasnif ilgidadurkim, tugansa ma’lum bo‘lurki, ne miqdor salohiyati bor”. Ma’lumotga diqqat qilsak, ustoz N. uning qo‘lida F. fani b-n bog‘liq bir tasnif borligini, agar tasnif-asarini yakunlasa, yana bir bor “ne salohiyati bor”ligini namoyon qilishini ta’kidlab ko‘rsatgan.

“N.M.” tazkirasida esa Sadruddin Ravosiy zikrida ustozi sifatida yana Xoja Fazlulloh Abullaysiyni eslar ekan, shunday yozadi: “...Samarqand Dor ul-ilmining olimi ulamosi erdi, zuhdu taqvoda naziri yo‘q erdi va fiqhda Abu Hanifai soniy derlar erdikim...” Ma’lum bo‘ladiki, N. asarlaridagi F. tushunchasi atama sifatida, deyarli, bir ma’noda qo‘llanilgan bo‘lsa-da, ba’zi o‘rinlarda ma’no ko‘chish asosida hukmdorlar, mashhur faqihlarning shu fanning fidoiylari sifatida F. faniga qo‘shgan hissalariga ham ishoralarni anglash mumkin.

N. “X.” dostonlari matnida *fiqh* atamasini, birinchidan, hadis, tafsir atamalari b-n deyarli yonma-yon ishlatgan bo‘lsa, ikkinchidan esa, ushbu atamani ko‘proq hukmdor-u shahzodalar, ulug‘ siymolar madh qilingan poetik tasvirlarda san’atkorona qo‘llagan.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Фарҳанги забони тожики. Жилди 2. – М., 1969; Кифоя (Шарҳи мухтасари виқоя) 1-жуз. – Т., 2008; Навоий асарлари луғати. – Т., 1972; Türkçe sözlük. 10 Baski. – Ankara, 2005; Ҳакимов М. Шарқ манбашунослиги луғати. – Т., 2013; Ражабова Б. Навоий ижодида тарихий-ҳуқуқий атамалар. Ўзбек тили ва адабиёти. 2015. 4-сон.*

B.R.

FIHREST (fihrast) – forscha atama. Lug‘atlarda kitob mundarijasi va kitob muqaddimasi kabi ma’nolarni bildirishi aytilgan. N. asarlarida ham F. xuddi shu ma’nolarda qo‘llangani seziladi, xususan, “F.Sh.” ning II bobida ham. Mazkur bob sarlavhasida shoir arab yozuvidagi harflar ifodasiga ishora qilib, shavq dostoni bo‘lmish “F.Sh.”da sarvqadlar bo‘y-bo‘yiga o‘xshash “alif”, binafsha sochlar jingalagiga o‘xshash “lom”larda “Alloh” so‘zi nazarda tutilishini gapirgan. Demak, bu o‘rinda N. Xudo ta’rifi berilishini shunday bayon qilgan va F. jumlasini ishlatgan. Bu jumla bob sarlavhasiga mos kelgan: “Bu shavq dostonining “alif”lari sarvqadlar bo‘yidek sanubarvash va “lom”lari binafsha zulflar turrasi yanglig‘ dilkash erkoniga bois fehrastida haq otidin tug‘ro va debochasi qayyumi mutlaq sifoti bila mutarro erkonining bayoni”.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011.*

B.R.

“FOZILLAR FAZILATI” – Hodi Zarifning N. ijodi va uning zamondoshlariga bag‘ishlangan ilmiy maqolalari to‘plami.

To‘plamga olimning turli yillarda yozilgan “Alisher Navoiyning adabiy muhitiga doir”, “Lutfiy va Alisher Navoiy”, “Badoye’ ul-bidoya”ning tuzilgan yilini aniqlashga doir”, “Alisher Navoiyning ruboiy va tuyuqlari haqida”, “Mir saroyi”, “Sozlar munozarasi” kabi maqolalari kiritilgan. Maqolalarda N.ning davri, adabiy muhiti, bunyodkorlik faoliyati, ayrim zamondoshlari ijodi xususiyatlari, shoir ijodida ba’zi janrlar taraqqiyoti, adabiy ta’sir masalalari birinchi manbalar asosida yoritilgan.

Ad.: *Ҳоди Зариф. Фозиллар Фазилати. – T., 1969.*

B.M.

FOZILOV Ergash Ismailovich (1933 – Toshkent viloyati Yangiyo‘l tumani – 2014, Toshkent shahri). 1952-y.da Yangiyo‘l tumanidagi o‘rta maktabni oltin medal b-n bitirgan va shu yilda Moskva Davlat universitetiga kirib, 1957-y.da sharqshunos-filolog mutaxassisligi bo‘yicha tamomlagan. 1957–60-yy.da Fanlar akademiyasi Tilshunoslik instituti turkologiya bo‘limining aspiranturasida o‘qigan. 1964–65-yy.da Vengriya FA.da doktorant bo‘lgan. 1961-y.da nomzodlik, 1967-y.da doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. 1976-y.da turkologiya bo‘yicha prof., 1979-y.da tekstologiya bo‘yicha O‘zR FAning muxbir a’zosi, 2000-y.dan O‘zR FAning haqiqiy a’zosi. 1968–81-yy. Til va adabiyot instituti Tarixiy leksikologiya va leksikografiya bo‘limining mudiri, ayni vaqtda 1974–81-yy. institutining ilmiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari, 1982–85-yy. Berlindagi Gumboldt universiteti prof.i, 1987–89-yy. Toshkent viloyati partiya qo‘mitasining kotibi, 1989–92-yy. Respublika Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vaziri o‘rinbosari, 1968–88-yy. nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari bo‘yicha ilmiy kengash a’zosi va raisi vazifalarida ishlagan. F.E.I.ning ilmiy ishlari nafaqat O‘zbekistonda, balki Germaniya, Polsha, Vengriya, AQSh, Turkiya, Finlandiya, Rossiya, Ozarbayjon, Qozog‘iston, Turkmaniston va boshqa mamlakatlarda chop etilgan.

F.E.I. XII–XIV–XV asrlardagi adabiy yodgorliklarni ilmiy tadqiq qilish, ularning noyob qo‘lyozmalari asosida ilmiy-tanqidiy matnini chop ettirish va lug‘atlarni tuzish bo‘yicha samarali ish olib borgan. F.E.I. N. asarlari tili bo‘yicha ham ko‘plab ishlarni amalga oshirgan. “Alisher Navoiy tilining lug‘ati tuzish haqida”, “Alisher Navoiy tilini o‘rganish tarixidan” kabi bir qator ilmiy maqolalar e’lon qilgan. Uning 1969-y.da chop etilgan “Qadimgi obidalar va Alisher Navoiy tili” ilmiy risolasi n.shunos olimlar tomonidan iliq kutib olindi.

F.E.I. 1983–85-yy.da 4 tomda chop etilgan. “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”ning asosiy rahbari va tuzuvchilaridan biri, lug‘atning ilmiy leksikografik tamoyillarini ishlab chiqqan, qadimgi turkiy (o‘zbek) so‘zlarning lug‘aviy ma’nosini talqin qilgan, ayrim asarlar bo‘yicha tuzilgan glossariy, sharh va izohlarni manbalar asosida so‘z va ma’nolar b-n to‘ldirib, birlashgan lug‘at-maqolalari qilib tuzgan.

F.E.I. 2013-y.da oldingi lug‘atlardan mukammal va to‘liq bo‘lgan “Alisher Navoiy asarlari lug‘ati”ning I tomini chop ettirdi.

F.E.I. o‘zbek tili tarixi va N. asarlari tili muammolariga bag‘ishlangan 40 dan ortiq nomzodlik hamda doktorlik dissertatsiyalariga rahbarlik qilgan.

Ad.: *Академик Эргаш Исмоилович Фозилов. – T., 2009; Фозилов Э. Қадимги обидалар ва Алишер Навоий тили. – T., 1969; Фозилов Э. Алишер Навоий тилининг луғати. – T., 1983-1985.*

N.H.

FOZILA SULAYMONOVA – (1919, Marg‘ilon – 2011, Toshkent) taniqli matnshunos, n.shunos olima, f.f. d-ri, prof. U davlatimizning “Sog‘lom avlod uchun”

(1994), “Buyuk xizmatlari uchun” (1999) ordenlari hamda Fransiyaning “Akademiya palmasi” (1994) ordeni b-n mukofotlangan. O‘tgan asrning 60-yillari boshida Hamid Sulaymon rahbarligida bir guruh n.shunos olimlar N.ning mukammal asarlari nashrini tayyorlashga kirishdi. Ana shu jarayonda F.S. ham matnshunos sifatida faol ishtirok etgan: Parij, London, Leningrad shaharlaridan yuzlab qadimiy qo‘lyozmalarning, Navoiy dastxatlarining nodir nusxalarining fotoakslari keltirilgan. N. mukammal asarlari to‘plamining 3, 4, 5 va 6-jildlari chop etilgan, “X.M.”ning ikki qo‘lyozma nusxasini qiyosiy o‘rganib chiqib, mukammal nusxasi aniqlangan.

U san’atshunos sifatida Hirot, Tabriz, Samarqand, Buxoro va Hind tasviriy san’at maktablarini o‘rganib chiqqan. Kamoliddin Behzod, Nodirmuhammad Samarqandiy, Muhammadmurod Samarqandiylar merosi b-n tanishgan. Natijada, F.S. buyuk shoirlar asarlariga chizilgan miniatyuralarni jamlab, “Navoiy asarlariga ishlangan rasmlar” (“Amir Xusrav Dehlaviy asarlariga ishlangan rasmlar”, “Nizomiy “Xamsa”siga ishlangan rasmlar”) nomi b-n ko‘plab miniatyuralarni o‘zida jamlagan albomni nashr ettirgan.

F.S. G‘arb va Sharq madaniyati haqida 200 dan ortiq ilmiy, ilmiy-ommabop maqolalar bitgan. N. hayoti, ijodi, davri, zamondoshlari xususida “Saddi Iskandariy”ning ba’zi yunon manbalari”, “Iskandar obrazining evolyusiyasi”, “Navoiy “Xamsa”si jahon adabiyoti xazinalarida”, “Navoiyning yangi topilgan she’rlari”, “Behzodlar navoiynomasi”, “Mo‘jaz surat”, “Navoiy musavviri kimlar?”, “Alisher Navoiy va Behzod” , “Xamsa” qo‘lyozmalari chet ellarda” kabi bir turkum maqolalar yozgan.

Ma’lumki, buyuk shoirning eng qadimgi qo‘lyozmalari jahonning mashhur va maqbul muzey, kutubxonalariga tarqalib ketgan. F.S.ning n.shunoslikka qo‘shgan muhim xizmatlaridan biri, bu – N.ning yuzga yaqin g‘azalini topish, o‘ganish va qiyoslashdek murakkab va sharafli ishni amalgan oshirganidir. F.S. ularni dastlab “Boqiy satrlar” rukni ostida alohida kitob shaklida nashr qilgan. Keyinchalik mazkur g‘azallar N. MAT. ining 20-tomiga kiritilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Девони Фоний. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Айёми висол ўлди яна (Тузувчи Ф.Сулаймонова). – Т., 1995; Ҳомиджон Ҳомидий. Жаҳоний шуҳрат. Жаҳон адабиёти, 2019, 8-сони. htths.zıyouz.uz...; Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. – Т., 2010; Сулаймонова Ф. Искандар образининг эволюцияси. – Т., 1984. № 3; Сулаймонова Ф. “Хамса” қўлёзмалари чет элларда. “Ўзбек адабиёти ва санъати”, 1985 йил, 8 ноябрь.*

B.R.

FOLKLOR VA NAVOIY – Turkiy xalqlar adabiyotining turli davrlarida xalq og‘zaki badiiy ijodiga murojaat qilish asosan, 2 usulda: birinchidan, adabiy asarda xalq g‘oyalarining, ilg‘or fikrlarining aks etishi b-n; ikkinchidan, folklor syujetlari, obrazlari, namunalarini qayta ishlab tasviriy vositalar sifatida foydalanish b-n amalga oshgan. Folklorning N. asarlaridagi bu xil ta’siri quyidagilarda ko‘rinadi:

I. **Folklor janrlari va namunalari:** 1) Xalq eposi namunalari. “X.”dagi “H.A.”dan boshqa dostonlar asosida Farhod va Shirin, Layli va Majnun, Bahrom Go‘r, Iskandar haqidagi an’anaviy qissalar, afsonalar yotadi; 2) Hikoya namunalari. “H.A.”, “S.I.”, “L.T.”, “M.Q.”, “M.Q.”da ko‘plab hikoyalar (ayrimlari masal, latifa) xalq ijodidan olinib, qayta ishlab kiritilgan; 3) Hazil-mutoyiba, askiya namunalari. Bular N.ning “M.N.”, “X.M.” va boshqa asarlariga satirik va yumoristik ruh bag‘ishlagan; 4) Xalq ijodining eng falsafiy janrlari – hikmatlar, maqollar, ta’birlar N. asarlarida hayotiy materiallar bo‘lib xizmat qilgan. 5) Asl ildizlari xalq she’riyatiga borib taqaladigan g‘azal, ruboiy, tuyuq, chiston, muammo shakllari N.ning mislsiz mahorati b-n she’riyatimiz tarixidan mustahkam o‘rin oldi; 6) Qo‘shiq janri ham shoirning lirik va epik ijodiga salmoqli ta’sir ko‘rsatdi. “X.” dostonlarida o‘rni-o‘rni b-n turli mavzulardagi qo‘shiqlarga, marsiyalarga ishora qilinadi, ularning mazmuni qayta ishlanib, doston misralariga moslashtiriladi. **II.Folklor obrazlarida:** 1) Bosh qahramonlar, shoh, vazir obrazlarida; 2) Ayollar

obrazlarida; 3) Dev, ajdar, yosuman kampir kabi mifik obrazlarda.

III. Badiiy san'at va priyomlarda: 1) Parallelizm; 2) So‘z o‘yinlari – tajnis va iyhom; 3) Mubolag‘a; 4) Talmeh; 5) Tovushdosh so‘zlar va boshqalarda.

IV. Etnografiya va xalq an'analarida: 1) O‘zbek xalqining urug‘lari, ularning ta'rif-tavsiflari; 2) Maishiy hayotning, kasb-hunarlarning turli sohalari; 3) Xalq marosimlari, bayramlari, sayllari, o‘yinlari va boshqalar.

V. Vazn, qofiya, radif tuzilishida: 1) Barmoq vazniga yaqin turuvchi "ramal" bahrining yetakchi vaznligida; 2) Jarangdor, o‘ynoqi, to‘liq, jonli tilga xos qofiyalarda; 3) Jonli tildan olingan va ko‘proq fe'llardan tuzilgan radiflarda. Bulardan ko‘rinib turibdiki, N.ning g‘oyalar, suratlar (obrazlar) va san'atlar olamini xalq og‘zaki badiiy ijodisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

N. asarlari sinchiklab mutolaa qilinsa, o‘zbek xalqining boy an'anaviy og‘zaki adabiyotga ega ekanligini ta'kidlovchi o‘rinlarga duch kelinadi. Bu holat, ayniqsa, "M.L."da yaqqol sezilib turadi. Asar o‘zbek tilining yashirinib yotgan boyliklarini ochib beribgina qolmay, ayni zamonda shu xalq og‘zaki ijodi, undan o‘zbek shoirlari bahramand bo‘lishida keng imkoniyatlar borligi haqida ma'lumot beradi. "X."dagi dostonlarning muqaddimasida va ba'zi boblarida ushbu asar mazmunini xalq afsonalari asosida yaratganini, o‘sha afsonalarning Sharq xalqlari o‘rtasida qay darajada tarqalib ketganini ta'kidlab o‘tadi. Ayni zamonda N. afsonalardan nima maqsadda foydalanayotganini ham ochiq bayon qilib beradi. Bunday holat, ayniqsa,"L.M." dostonining XVIII, XX, XXVIII, XXX, XXXIII va boshqa boblari; "F.Sh." dostonining XIII, XIX, XXXI, XXXII, XXXIX va boshqa boblari va "S.S."ning ayrim boblarida mavjud.

Xalq og‘zaki ijodidan ilhomlangan va unumli foydalangan N. xalq ijodini pisand etmagan, undan bahra olmagan shoirlarni qattiq tanqid qiladi. Bu jihatdan ayniqsa, "H.A." dostonining XV bobiga qo‘yilgan sarlavha diqqatga sazovor: "*Bir necha so‘z ul ma'nidakim, so‘zdagi ma'ni joni dururkim, so‘z qolibi onsiz qolibe durur jonsiz va ani topmoq ishini kishi bilmas, balki ani topqon kishi topilmas va ahli gazof noinsoflig‘iga munsif bo‘lmoq, balki o‘z gazofig‘a insof berib, alarning uzrin qilmoq*".

"X."dagi dostonlarning syujetlari hali yozma adabiyotga kirmasdan oldin Sharqdagi turli xalqlarning og‘zaki ijodida afsona, rivoyat, ertaklar sifatida yashab kelardi. Bu to‘g‘rida "X." dostonlarining o‘zida ham ahamiyatli ishoralar bor. N. asarlaridagi bunday qimmatli ilmiy ma'lumotlarga atoqli olim Maqsud Shayxzoda "Navoiy ijodida folklor motivlari" maqolasida ilk marta "F.Sh."dagi syujetning dastlab xalqda yaratilganligini ta'kidlab o‘tgan edi. Ulug‘ shoirning o‘zi ham bu haqda yozadi:

Ki el Parvezdin mag‘bun edilar,
Dog‘i aning uchun maftun edilar.

Deb ul ma'nida tab' ahli g‘azal ko‘p,
Mug‘anniylar yasab savtu amal ko‘p.

Chekib dard ahli ohi oshiqona,
Tuzub ul savtlar birla tarona.

Dostonda Shirinning o‘zi ham Farhod fojiasi haqidagi xabarni xalq o‘rtasida tarqalib ketgan qo‘shiqlar orqali eshitadi:

Quloq soldik, abyotin eshitkay,
Surud ichra maqolotin eshitkay.

Anga har bayt bir g‘amxona erdi,
Bori Farhoddin afsona erdi.

Farhodning boshiga tushgan fojialarni uning do‘sti Shopur ham xalq og‘zidan eshitib kelib, Mehinbonuga so‘zlaydi. Demak, N. bu syujetlar allaqachonlar xalq o‘rtasida yaratilgan va yashab kelayotganiga hayratlanib qaraydi. U ana shu haqdagi ilmiy-tarixiy xabarlarni, imo-ishoralarni san'atkorona til b-n o‘z asariga turli o‘rinlarda qistirib o‘tadi.

Shoir xalq afsona va naqllarini ijodiy ishlashga kirishar ekan, bu afsonalar orqali o‘zining ilg‘or g‘oyalarini badiiy ifodalash va namoyish qilish

imkoniyati bormi-yo‘qligi to‘g‘risida bosh qotiradi. N. Layli va Majnun haqidagi afsonalar o‘zining ko‘zlagan maqsad va g‘oyasini ifodalashga mos bo‘lgani u-n undan foydalanganini aytadi:

Men xastaki bu raqamni chektim,
Tahriri uchun qalamni chektim.

Yozmoqda bu ishqi jovidona,
Maqsudum emas edi fasona.

Mazmunig‘a bo‘ldi ruh mayli,
Afsona edi aning tufayli.

Lekin chu raqamg‘a keldi mazmun,
Afsona anga libosi mavzun.

Qissaxonlar XV asr adabiy-madaniy hayotida xalq diliga ruhiy ozuqa berishda muhim o‘rin egallagan. Buning isboti ularning N. tarafidan XV asrning ijtimoiy tabaqalari qatorida alohida ta’riflanishidir. Qissaxonlar temuriylarning saroylarida ham xizmat qilishgan. O‘sha davrning eng mashhur qissalari nomlarini N.ning o‘zidan topamiz:

Dema roviy erur “Farhodu Majnun
qissasi” muhlik,
Ani alqissa bir dolu alif bil
dostonimdin.
Roviyo bahrlaridin manga yo‘qtur
kecha uyqu,
“*Qissai Hamza” degil gohiyu goh*
“Qissai Yusuf”.

Bu baytlardan N. zamonida “Farhodu Shirin qissasi”, “Yusuf qissasi”, “Amir Hamza qissasi” ko‘p o‘qilgani ma’lum bo‘lmoqda.

N. zamonida xalq badiiy ijrochiligining yana bir tur vakillari – go‘yandalar ham bo‘lganlar. N. Sayyid Hasan Ardasherni ta’riflaganda, mazkur so‘z san’atkorlarini alohida-alohida tilga oladi: “Va zamonaning shuaro va fuzalo va zurafosidin alarning visoqi xoli ermas erdi... Va shahrning sozanda va xonanda va go‘yandasi doim alar suhbatida hozir bo‘lurlar erdi”. Go‘yandalar ko‘proq to‘y va bayramlarda qatnashib, marosimga tantanali ruh bag‘ishlaganlar. Ular dastlab qissaxonlar repertuaridagi umumiy asarlarni, keyinchalik sozandalar jo‘rligida faqat she’riy asarlarni ijro etishgan. N. asarlarida xalq doston va qissalarini, qo‘shiqlarini aytuvchi, ijro qiluvchilarning yana bir nechasi tilga olinadi: dostonsaro (doston aytuvchi), afsunsoz, afsonapardoz, fasonapayvand (usta dostonchi, hikoya aytuvchi), qissapardoz (hissani chiroyli qilib aytuvchi), nohil, roviy (naql, rivoyat, qissa aytuvchi), navogo‘ (go‘daklarga alla aytuvchi), navhagar (ta’ziyada yig‘i aytuvchi) va boshqalar.

N. asarlari hamda XV asrning boshqa tarixiy-adabiy manbalarida o‘zbek xalq og‘zaki ijodining eng ommaviy janrlaridan biri bo‘lgan hazil-mutoyiba, askiya va uning ijrochi – namoyandalari to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlar mavjud. Birgina “M.N.”da askiya ma’nosini anglatuvchi quyidagi so‘zlar bor: hazil, mutoyiba, lutf, latoyif, zarofat, badiha. Askiya namoyandalarini esa zurafo, zarif, zarif yigit, zarifvash, zarofatlik kishi, hazzol, nadimsheva va shiringo‘y kishi kabi so‘z va so‘z birikmalari bildirib keladi. Yana askiyachi ma’nosini beruvchi *bazlago‘* so‘zi “F.Sh.”, “N.Sh.”da shunday qo‘llangan:

Zarofat holatida bazlago‘ylar,
Atoridqa qilib hardam g‘ululars.
Navoiy agar bor erur bazlago‘y,
Badi’ eldin ermas badoye badi’.

Xalq qo‘shiqlari shoir g‘azallarining ham g‘oyaviy yo‘nalishiga, ham badiiy tomonlariga ta’sir ko‘rsatdi. Akad. Oybek N. haqidagi tadqiqotlaridan birida “Navoiy ba’zan xalq she’rlariga o‘xshagan, ya’ni boshqa g‘azallariga qaraganda soddaroq, samimiyroq, hayotiyroq narsalar ham yaratadi”, deb alohida qayd etgan edi. Xalq qo‘shiqlariga yaqin g‘azallar hajmining me’yorida bo‘lishida (deyarli 7 baytdan iborat), misralarning qisqaligida, o‘zbek xalq tiliga xos so‘zlarning ko‘pligida, soddalik, ravonlik, samimiylik, hayotiylik, va nihoyat, musiqiylikda ajralib turadi:

Bizning shaydo ko‘ngul bechora bo‘lmish,
Malomat dashtida ovora bo‘lmish.
Anga baskim yog‘ar tosh ustiga tosh,
Tanida yora uzra yora bo‘lmish.

Xalq qo‘shiqlarining N. g‘azallariga ta’siri vazn masalasida yanada chuqurlashdi. Xalq she’riyatida “qo‘shiq” va “turkiy”, deb yuritiladigan qo‘shiqlarning, ashulalarning vazni – ramal bahri g‘azallardan ham keng o‘rin oladi. U “M.A.”da xalq qo‘shiqlari haqida so‘zlaganda o‘sha “qo‘shiq” va “turkiy” degan xalq she’riy shakllarining vazni ramal haqida xabar beradi.

N. asarlaridagi hikmatli so‘zlar, maqollar ishlatilishining bir necha ko‘rinishlari mavjud. Keltirilayotgan maqol, ta’bir va hikmatlar xalqdan olingani, xalq orasida ma’lum va mashhurligi quyidagi so‘zlar vositasi b-n alohida ta’kidlanadi: *bu masal mashhur erur, bu masaldur, masaldurkim, so‘zki bor, so‘z der, rost andoqkim, chin emishkim, der emish, derlar, deydilar, ayturkim* va h.k. Yana ko‘p hollarda maqol va matallar *kim, vaqki, nechukkim, agarchi, andoqki balki, vale, lekin* bog‘lovchilaridan so‘ng hamda *bilmasmusenkim, ayb emas, ayb qilmakim, ajabkim, ne ajab, ajab holat* kabi kirish iboralaridan so‘ng kelgan. Zikr etilgan bog‘lovchi va kirish iboralari ham o‘zidan keyin keluvchi hikmatning turmush, tabiat va jamiyat voqea-hodisalari ustidan chiqarilgan xalq hukmi ekanligiga ishora vazifasini bajaradi:

Yetti jon og‘zimakim chiqmas
uyidin ul hur:
“Chiqmag‘on jong‘a umid” –
ushbu masaldur mashhur.
Derlarki: “Og‘iz o‘t desa kuymas”, –
vale bu oh
Chun sabt bo‘lsa, xomau daftarni
kuydurur.
Topmaduk gulrang jomi bexumor,
ey bog‘bon,
Vahki: “Bu gulshan aro gul butmas
ermish xorsiz”.
Labing ko‘rgach iligim tishlaram
har dam tahayyurdin,
Ajab holatki: “Bolni tutmayin
barmog‘ yalaydurman”.

Maqol hech bir ta’kid va ishorasiz to‘g‘ridan to‘g‘ri kelgan holatlar ham bor. Bunday o‘rinda maqol birinchi misraga yondosh keltirish usuli b-n bog‘lanadi:

Orazin ko‘rdim nihon ashk ayladi
sirrimni fosh,
“Yoshurun qolmas o‘g‘urluq
uy arokim bo‘lsa yosh”.
Borkashlarga fano ahli qachon
qilg‘ay joh?
“Tevaning ko‘ngli kichikdur,
gar erur paykari cho‘ng”.

Maqolning shaklini saqlagan holda baytning har ikkala misrasiga joylashtirish juda kam uchraydi:

Yerdin desa qozib chiqoray: “Yer erur qotiq”,–
Ko‘k konidin desaki olay: “Ko‘k yiroq erur”.

Baytda “Yer qattiq, ko‘k (osmon) yiroq” maqollari shaklini saqlagan holda berilgan.

Maqol yoki matalning mazmuni she’r vazni talablariga ko‘ra baytga singdirib yuboriladi, natijada ma’lum bir maqol, matal mazmuni zaminida yangicha shaklda ifodalangan hikmatli so‘z (aforizm) yuzaga keladi. Lekin shunda ham matnda xalq maqoli keltirilayotgani yaqqol sezilib turadi:

Zumurrad qadri bor oz ersa, lekin
Xush ermas behad-u poyon zumurrad.
Yuqar yomonlig‘ angakim, kirar yomon el aro,
Ko‘mur aro ilik urg‘on qilur ilgini qaro.

Yuqorida, “Gavhar ko‘p bo‘lsa, beqadr bo‘ladi”, “Yomonga yaqin yursang, balosi yuqar, qozonga yaqin yursang, qarosi yuqar” maqollar mazmunidan foydalanib, yangi shaklda ifodalangan aforizmlar vujudga kelgan.

N. o‘zbek tilidagi lirikasida maqol va hikmatlardan qanday bahramand bo‘lgan bo‘lsa, forstojik tilidagi “D.F.”ga kirgan she’rlarida ham ko‘plab forscha-tojikcha maqol, ta’bir, hikmat va iboralarni qo‘lladi:

Bubin balandiyi charxi barin-u pastiyi xok,
Nigun shudan chu naxohiy bois xudro past.

Tarj.: Osmonning balandligini ko‘r-u yerning pastligiga qara, osmondek baland boshim (yerdek) past bo‘lmasin desang, o‘zingni past tut.

“Alisher Navoiy va xalq ijodi” deganda masalaning boshqa tomonlari ham bor. U ham bo‘lsa, N. haqida o‘zbek, turkman, qozoq, tojik va boshqa xalqlar afsona va rivoyatlarining qaysidir qirralari N. asarlariga ta’sir qilib, uning asarlarini xalq kitoblariga yaqinlashtiradi.

N. xalqdan olgan maqol va matallarni alohida ta’kid va uqtirishlar b-n keltiradi va ularning xalq tilida ham mazmuni, ham shakli qanday bo‘lsa, o‘shanday saqlashga iloji boricha harakat qiladi. Shuning u-n N. asarlarini mutolaa qilgan har bir kitobxon hozir iste’moldan chiqib, aforizmlar fondida tarixiy maqollarga aylanib qolgan hikmatlarni ham, xalqimiz tilida iste’molda bo‘lib yashab kelayotgan hikmatlarni ham matn tarkibidan osonlikcha payqab olishi shubhasizdir.

Ad.: *Алишер Навоий. ТАТ. 10 жилдлик, 1-10жилд. – Т., 2011; Шайхзода М. Қўшиқлар ҳақида. – Т., 1964, 4-июль; Маллаев Н. Алишер Навоий ва халқ ижодиёти. – Т., 1974; Алавия М. Навоий ғазалларида халқ таъбирлари. – Т., 1968, 8-сон; Афзалов М. Навоий ҳақида халқ афсоналари. – Т., 1948, 5-сон; Ҳакимов М. Навоий лирикаси ва халқ оғзаки ижоди. – Т., 1979; Сафаров О. Халқ ганжинасига меҳр. Навоийга армуғон. 5-китоб. – Т., 2006; Жўраев М, Нарзиқулова М. Миф, фольклор ва адабиёт. – Т., 2006; Эшонқулов Ж. Фольклор образ ва талқин. – Қарши, 1999; Авезов С. Алишер Навоий ижодида фольклор анъаналари. Buxdu.Uz: Том 1 №1(2020).*

Muh.H., S.R.

FORIZ – N.ning “T.A.H.” asaridagi “Yusuf (a.s.)” qissasida tilga olingan personajlardan biri. Asar syujetiga ko‘ra, F. Yahudoning o‘g‘li, u Ya’qub (a.s.)ning o‘g‘li Yusuf (a.s.)ga yozgan ruq’asini Misrga olib borib, Yusuf (a.s.)ga topshirgan va va uning javob xatini otasi Ya’qub (a.s.)ga olib kelib bergan. Chunonchi: “Oqibat azizga bir ruq’a bitib, Yahudo o‘g‘li Forizdin yibordi va o‘z holinikim, Yusuf otlig‘ o‘g‘li firoqidin ne suubatqa qolib erdi va Ibni Yamin furqatidin ne shiddatqa musaxxar bo‘ldi, deb arz qildi. Yusuf (a.s.) aning javobida ul nav’ nasihatomiz ruq’a yibordikim, Ya’qub (a.s.)g‘a yetkach, o‘qutub ayttikim, bu maktubdin anbiyo kalomi va rasul payg‘omi holoti ko‘ngulga yetishadur” .

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

B.R.

FOROBIY (taxallusi; to‘liq ismi: Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn O‘zlug‘ Tarxon Forobiy (873, Forob − 950, Damashq) − qomusiy olim, adib, mutafakkir. Boshlang‘ich ma’lumotni ona shahrida olgan bo‘lajak alloma Toshkent, Samarqand va Buxorodagi madrasalarda tahsilni davom ettiradi. Shundan so‘ng bilimini yanada chuqurlashtirish maqsadida o‘sha davrning yirik ilm va madaniyat markazi bo‘lgan Bag‘dodga borib, Abu Bashar Matto ibn Yunus al-Kunnoiydan yunon tili va falsafasini, Yuhanna ibn Hiylondan esa tibbiyot va mantiq ilmini o‘rganadi. Ba’zi tarixiy manbalarda keltirilishicha, F. 70 dan ortiq tilni bilgan.

F. nozikta’b she’rshunos bo‘libgina qolmay, o‘zi ham badiiy ijod b-n shug‘ullangan. Jumladan, tarixiy-adabiy manbalarda uning falsafiy teran ruboiylar yozganligi ta’kidlanadi va ulardan 2 tasi bizgacha yetib kelgan. F. arab tilida ham she’rlar yozgan. Arab muarrixi Ibn Abi Usaybia (1203–1270) “Uyun al-anbo fi tabaqot al-atibbo” (“Tabiblar darajasini belgilash uchun xabarlar chashmasi”) asarida “Ba’zida Forobiy she’r ham yozar ekan”, – deb alloma ijodidan keltirilgan namunalarni A.Irisov o‘zbek tiliga tarjima qilgan

– ularda muallifning o‘zi, zamondoshlari haqidagi kuzatishlari, falsafiy mulohazalari o‘z ifodasini topgan.

Olam siri to hanuz yechilmay keladi,
Bu bebaho dur hamon teshilmay keladi.

Har bir kishi aqli boricha so‘z aytar,
Haq mohiyati, lekin ochilmay keladi.

N. o‘zi tarbiyalagan farzand maqomidagi Shohquli g‘ijjakchiga yozgan maktubida uni “muallimi soniy Abu Nasr Forobiy” deb zikr etadi va musiqa bilimdonlaridan biri sifatida ko‘rsatadi. Musiqa ilmining asoschisi Pifagor zamonidan tortib, uning bilimdonlari muallimi avval Aristotel davrigacha, muallimi soniy Abu Nasr Forobiy ayyomidan Xoja Abdulqodir asrigacha biror podshoh zamonida bu fan ahlidan hech kim men senga berganchalik tarbiya ko‘rmagan edi, deb yo‘ldan ozgan shogirdidan gina qiladi.

N.Komilovning yozishicha, F.ning “Fozil odamlar shahri” asaridagi ideal jamiyat haqidagi qarashlari XV asrga kelib qayta jonlangan. Jumladan, Jaloliddin Davvoniy “Axloqi Jaloliy” asarida irfon b-n hikmat, hakim b-n valiy, faylasuf b-n darvesh mohiyatan o‘zaro yaqin bo‘lib, hakimda valiylik, valiyda hakimlik xislatlari mavjudligini yozar ekan, bu b-n buyuk salafining ayni mavzudagi fikrlarini rivojlantiradi. Chunki, u fozil shahar hokimi fazilatlarini ta’riflar ekan, unda ilohiylik qudrati va dunyoviy ilm-u donish mujassam bo‘lishi shartligini ta’kidlagan edi. “S.I.”da ham ayni qarashlarning ta’sirini sezish mumkin. Aflotun, Arastu kabi qadimgi yunon olimlari va F. orzu qilgan podshoh donishmand va hikmat sohibi bo‘lishi lozimligi haqidagi talabni N. Iskandar siymosida mujassam etadi – u ham shoh, ham donishmand edi.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Ирисов А. Форобий – адиб. – Т., 1975; Комилов Н. Искандар пайғамбар бўлганми? // Навоийга армуғон. – Т., 2004; Абу Наср Форобий. Шеър санъати. – Т., 1979; Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. – Т., 1993; Минг бир рубоий. – Т., 2009.*

E.O.

FORS – yaqin Sharqdagi eng qadimiy viloyatlaridan bo‘lib, Eronning janubiy qismida joylashgan. F.ning Istaxor va Sheroz kabi iqtisodiy-siyosiy va madaniy markazlari mavjud bo‘lsa-da, ulardan Istaxor VI asrda arab istilosi davrida qattiq vayronalikka uchragan. Sheroz bugungi kunda ham markaziy shahar sifatida o‘z mavqeyini saqlab keladi. F. viloyati hudud jihatidan Eronga yaqin bo‘lib, turli davrlarda Eron davlati tarkibiga kirgan. Shu b-n birga mustaqil viloyat sifatida ham nash’u namo topgan. XV asrda temuriylar davlati tarkibida har jihatdan katta mavqega ega bo‘lgan edi. Bu viloyatni Isfahon b-n qo‘shib, XV asr avvallarida temuriylardan Iskandar mirzoning boshqargani ma’lum.

N. asarlarida turli munosabatlar b-n F. ko‘p marotaba qalamga olinadi. Jumladan, “H.A.” dostonining 7-faslida qanoatning foydalari haqida so‘z yuritgan shoir so‘ngra 35-bobda bu tushuncha b-n bog‘liq bir hikoyatni keltiradi va hikoyat qahramonlari – ikki rafiqning aynan F. navohasidan Chin sori yo‘l olganliklarini ma’lum qiladi:

Fors navohiysidin ikki rafiq,
Ayladilar Chin sori azmi tariq.

Shuningdek, “S.I.” dostonida Iskandarning harbiy yurishlari haqida so‘z ketganda, uning F.ga ham borishi xabari berilgan:

Yana aylab Fors fathiga azm,
Muyassar bo‘lub, aylamay kiynu razm.

N. Hofiz Sheroziyga tatabbu’ tarzida yozilgan bir g‘azalida ustoz shoir xotirasiga nisbatan katta hurmat ko‘rsatgan va she’r maqta’sida quyidagilarni yozgan edi:

Shoyad, ey Foniy, ba qabri Hofizash sozand sabt,
Gar ba xoki Fors aftad nusxai tahriri mo.

Tarj: Ey Foniy, asarimizdan bir nusxasi Fors eliga yetsa, uni Hofiz qabriga yozib qo‘ysalar ham ajab emas.

Diqqat qilinsa, N. Hofiz g‘azaliga tatabbu’ bitish b-n uning san’atkor shoirligini tan olgan. Shu b-n birga, ulug‘ shoirimiz g‘azal maqta’sida o‘zining forscha she’rlari ham yuksak mahorat b-n yozilganligiga ishora qilgan va she’rining forslarga yetib borsa, Hofizning qabriga yozib qo‘yishlari mumkinligidan ajablanmagan.

Ad.: *Алишер Навоий. Девони Фоний. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

S.R.



FUZULIY (Taxallusi; to‘liq ismi: Muhammad Sulaymon o‘g‘li Fuzuliy) (1498–1556, Iroq) – zullisonayn shoir. Otashnafas she’rlari b-n turkiy xalqlarning mushtarak shoiriga aylanib ketgan, asrlar davomida turkiy she’riyatga kuchli ta’sir ko‘rsatib kelgan F. Karbalo shahrida tug‘ilgan. Otasi Ozarbayjonning Bayot qabilasidan bo‘lib, XV asr o‘rtalaridagi siyosiy notinchlik tufayli ko‘plab qabiladoshlari qatori, o‘rta asrning madaniy markazlaridan bo‘lgan Bag‘dodga ko‘chib boradi.

F.ning yoshligi shoh va shoir Ismoil Xatoiy hukmronlik qilgan, ozarbayjon tili, adabiyoti va madaniyati gullagan davrga to‘g‘ri keladi. “Bu adabiyot turkiy xalqlar adabiyoti orasida N. adabiy maktabidan keyingi eng ilg‘or adabiy maktab edi”. U Karbalodagi boshlang‘ich maktabda savodini chiqarib, so‘ng Bag‘dod madrasalarida tahsilini kamolga yetkazadi, o‘zi ham mudarrislik qiladi. Uning bir o‘g‘li bo‘lib, Fazliy taxallusi b-n she’rlar yozgan va o‘z zamonida ancha shuhrat qozongan.

Juda yoshligidan qo‘liga qalam olgan F. boy adabiy an’anaga ega bo‘lgan forsiy va turkiy adabiyotning Nizomiy Ganjaviy, Sa’diy Sheroziy, Xoqoniy Shirvoniy, Mujrim Baylaganiy, Salmon Sovajiy, Hofiz Sheroziy, Kamol Xo‘jandiy, Imodiddin Nasimiy, Atoiy, Lutfiy, Abdurahmon Jomiy, N. kabi atoqli so‘z san’atkorlari ijodini mehr b-n o‘qib-o‘rganib, ularning mahorat sirlaridan bahramand bo‘ladi. Uning she’riyatdagi ilk ustozi ozarbayjon mumtoz adabiyotining taniqli namoyandasi Habibiy edi. Shoir ijodiga, ayniqsa, Lutfiy b-n N. kuchli ta’sir ko‘rsatgan.

F. “L.M.” dostoni muqaddimasida N. nomini ehtirom b-n tilga oladi:

Turk-u Arab-u Ajamda ayyom.
Har shoira vermish edi bir kom.

Shod etmish edi Abu Nuvosi,
Horun xalifaning atosi.

Bo‘lmishdi safoyi dil Nizomiy,
Shirvonshaha dushub kiromi.

O‘lmishdi Navoiyi suxandon
Manzuri shahanshahi Xuroson.

N. – F. u-n ustoz, she’riyat yo‘lida rahnamo maqomida edi. Mashhur ozar shoirining ijodiy takomilida ulug‘ o‘zbek so‘z san’atkorining o‘rni katta. F. N.ga qarab bo‘y o‘lchagan, buyuk salafining ko‘plab g‘azallariga tatabbu’ qilgan, u qalamga olgan mavzularning yangi qirralarini ochib, qo‘llagan timsol-u tashbehlarning ma’no doirasini kengaytirgan. Jumladan, F. N.ning “Mango”, “Sango”, “Paydo”, “Ko‘rub”, “Et”, “Subh”, “Besh Emas”, “Hanuz”, “O‘ynar”, “Aylagach”, “Tut”, “Bahs”, “Istadim”, Aylar mani” radifli o‘nlab g‘azallariga tatabbu’ qilgan. M-n., N.ning 9 baytli “Besh emas” radifli falsafiy g‘azaliga 7 baytli juda go‘zal va ohorli tatabbu’ qiladi:

N.:

Dahr sudidin tama’ uzkim, ziyone besh emas,
Umrni tutqil g‘animatkim, zamone besh emas.

F.:

Dahr bir manzil, xaloyiq korvoni besh emas,
So‘z g‘am-u afsona, el afsonaxoni besh emas.

Bir vazn, qofiya va radifda bo‘lishiga qaramay, bir mavzuni kengaytirib va chuqurlashtirib, yangidan-yangi ma’no qirralarini ochgani jihatidan g‘azal va tatabbu’ o‘ziga xos alohida ohorli asarlar hisoblanadi.

Ikki shoir ijodini qiyosiy tekshirganda, juda ko‘plab o‘zaro mushtarakliklar, adabiy ta’sir ko‘rinishlariga guvoh bo‘lamiz. Avvalo, F. devonining ilk g‘azali ham “X.M.” devonlar turkumining ilk g‘azali ta’sirida yaratilganini ta’kidlab o‘tish joiz. F. N. qalamga olgan ko‘plab mavzularda o‘z so‘zini ayta olgan, u ilgari surgan fikrlarni davom ettirgan va rivojlantirgan, qo‘llagan timsol-u tashbehlarning yangi qirralarini ochgan. M-n, dunyoning bevafoligi, vafo so‘zining olam lug‘atida yo‘qligi, odam zoti bu ezgu qadriyatdan mosuvoligi b-n bog‘liq bayt-u misralar N. she’riyatida butun bir silsilani tashkil etadi. Ayni mazmundagi baytlar F. ijodida ham oz emas. M-n:

N.:

Topmasang davr ahlidin mehr-u vafo,
ayb etmakim,
Butmamish bu meva davron
bog‘ining ashjorida.

F.:

Fuzuliy, yo‘q vafo imkoni olam ahlida
hech ham,
Behuda bilmang olam ahlidan
bu ijtinobimni.

Ikki shoir ijodida mushtarak mavzularning o‘ziga xos talqinlariga ham ko‘p duch kelamiz. M-n, N. mashhur bir baytida: “Chin (Xitoy)lik musavvir suratingni chizish uchun kelgan edi, lekin yuzingni ochishing bilan uning o‘zi devorga chizilgan suratga o‘xshab qotib qoldi”, – deb lutf etadi:

Keldi Chin naqqoshi ul yuz naqshini
qilmoqqa tarh,
Chehra ochib, naqshi devor
aylading naqqoshni).

F.ning “Sen shu qadar go‘zalsanki, suratingni chizishga qalam ojiz – to suratingni solguncha hayrat selida musavvirining o‘zi suratga aylanib qoladi”, – mazmunidagi quyidagi bayti ham xuddi shu mavzuda:

Na zebosanki, surat bog‘lamaz tasviri ruxsoring,
Tahayyur surat aylar surating chekdikcha naqqoshi.

Quyosh va oy go‘zallik timsoli bo‘lganligi u-n ham N. g‘azallarida mahbuba ta’rifida “Ey husn aro sohibg‘ino: xurshid – atongdur, oy – ano”, ya’ni otang – quyosh-u onang – oy bo‘lganligi, shu ikki go‘zal xilqatdan yaratilganliging u-n ham sen go‘zallarning shohisan, husn davlatining sohibisan mazmunidagi bayt-u misralarga ko‘p duch kelamiz. F.ning: “Husn bahsida oy b-n kun jamoling oldida ojiz – go‘yo otang to‘lin oy-u onang oftodir”, – mazmunidagi mana bu bayti buyuk salafining ayni ma’nodagi baytlariga hamohang jaranglaydi:

Oy-u kundur husn bahsinda jamoling ojizi,
Go‘yiyo otang mahitobondur, onang oftob.

Mana bu baytlarda ham o‘zaro mushtarakliklarni ko‘ramiz. N. falak toqiga yuksalgan quyoshning yer qa’riga kirishi hodisasidan bugun jilvagar bo‘lgan quyosh yuzli go‘zalning oqibat tuproq qatiga kirishi haqidagi hayotiy haqiqatni betakror tarzda ta’sirchan ifodalash u-n mahorat b-n foydalanadi:

Ey falak, qaysi quyosh yuzlukni bir kun charx uza
Jilvagar qildingki, oqshom yerga pinhon qilmading?

Falakning bevafoligi-yu inson umrining o‘tkinchiligi haqidagi haqiqatni teran ifodalagani jihatidan hikmat darajasiga ko‘tarilgan ushbu bayt, shubhasiz, shohbaytdir.

F. esa “Falak gardishining mehriga aldanmaki, bugun ko‘kka yetkursa, ertaga yer bilan yakson qiladi”, – degan hayotiy haqiqatni ilgari suradi:

Ey Fuzuliy, mehrina oldanma charxing gardishi
Ko‘ka yeturmish, vale xok ila yakson aylamish.

N.ning “L.M.” dostonida falsafiy mazmun va ruh quyuq, kuchli. Shunga muvofiq ravishda, asar kompozitsiyasi ham birmuncha murakkab. Tili va uslubi ham og‘ir. Uni teran tushunish u-n muayyan tayyorgarlik va mushohada taqozo qilinadi. Shuning uchunnmi, xalq orasida F.ning “Layli va Majnun”i ko‘proq mashhur bo‘lgan. Bu doston sodda va xalqchil uslubda yozilgan. Tili ham yengil va tushunarli. Hassos ruhi, jozib ohangi, haroratli misralari b-n o‘ziga tortadi. Dostonning el ichida bu qadar mashhurligiga sabab qilib ba’zi mutaxassislar F. o‘z asarini Majnun bo‘lib yozganligini ko‘rsatadilar.

N.ning F. ijodiga ta’siri keng va serqirra bo‘lib, bu mavzu o‘zbek va ozar olimlari tomonidan bir qadar o‘rganilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-жилдлар. – Т., 2011; Фузулий. Девон. – Т., 1959; 1960; Гулчин аз гулзори назми Фузулий. Душанбе, 1960; Муҳаммад Фузулий. Асарлар, 2 жилдли. – Т., 1968; Фузулий. Ғамзасин севдинг, кўнгил... – Т., 2009; Фузулий. Қалб гавҳари. – Т., 2014. Арасли Г. Великий азербайджанский поэт Физули. –Баку, 1958; Бертельс Е.Э. Физули. – М., 1965; Жалолов Т. Фузулий. Фузулий. Девон. – Т., 1960; Расул Х. Муҳаммад Фузулий. Муҳаммад Фузулий. Асарлар. 1-жилд. – Т., 1968; Жўрабоев О. Фузулийнинг “Сув қасидаси”. “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2006, № 5; Очилов Э. Лайло шеъриятнинг Мажнун шоири // Барҳаёт сиймолар (Мақолалар тўплами). – Т., 2012; Очилов Э. Фузулий (Рисола) // Нафис мажлислар, 2-китоб. – Т., 2018.*

E.O.

FURQAT (To‘liq ismi: Zokirjon Mullo Xolmuhammad o‘g‘li Furqat (1859, Qo‘qon – 1909, Yorkent) – shoir, publitsist. Zokirjon 8 yoshidayoq mutasavvif shoir Farididdin Attorning mashhur “Mantiq ut-tayr” dostonini 6 oy davomida xatm qilganini aytgan. N. asarlarini o‘qishga shunchalik berilganki, bir kecha tushiga hatto ulug‘ shoirning o‘zi kirib, uni she’riyatdan imtihon qiladi va ijod yo‘liga kirishi u-n “oq fotiha” beradi. O‘zining e’tirof etishicha, u 9 yoshidayoq she’r yozishga kirishib,

Mening maktab aro buldur murodim,
Xatimdek chiqsa imlo-yu savodim, –

misralari u-n muallimning olqishiga sazovor bo‘lgan.

“Xo‘qandlik shoir Zokirjon Furqatning ahvoloti, o‘zi yozg‘oni” nomli hasbi holida keltirishicha, F. 9 yoshida N.ning “Ch.D.”ini o‘qishga kirishadi. N. asarlarini mutolaa qilib, uning ta’sirida yurgan kunlarining birida tush ko‘radi. Eram bog‘i kabi afsonaviy bog‘da sayr etib yurganida bir daraxtga chiqib, meva terishga mashg‘ul bo‘ladi. Shu mahal kelishgan yosh yigit paydo bo‘lib, uni bir guruh donishmandlar o‘z huzurlariga chorlayotganlari xabarini yetkazadi. Supada ko‘plab ustozlar davra olib o‘tirgan bo‘ladi. To‘rda 3 farishtasifat mo‘ysafid oldlariga kitoblar yoyilgan holda o‘zaro munozara bilan band. Zokirjonni chorlab, tahsilidan imtihon qiladilar. U ta’zim qilib, Mir Alisher devonlarini mutolaa qilayotganini aytadi. To‘rdagi ulug‘ zot ishorati b-n uning oldiga bir kitob qo‘yadilar. Bu “Chor devon” edi. “Andin mening qo‘lumg‘a qalam va qog‘oz berib, har qaysilari bir misra’dan bayt aytdilar. Men yozib tamom qildim ersa, hammalari qo‘l ochib, haqimda duo qildilar va she’r mashqig‘a ruxsat berdilar”. Ustoziga ko‘rgan tushini hikoya qilganida, u shunday ta’bir qiladi: “Ey farzand, ul yuqorida o‘lturgan aziz Amir Alisher Navoiy va o‘zgalari soyir shuarolar bo‘lg‘ay. Sening zotingga alardin madad etib, ilmi ash’ordin bashorat bermishlar, muboraking o‘lg‘ay. Zihi maymanat xob ko‘rmishsen!”, – deb bo‘lajak shoirning peshonasidan o‘pib qo‘yadi.

“Balog‘at erur she’r oroyishi”, – deb yozgan F. ham N. kabi ijodga nisbatan nihoyatda talabchan bo‘lib, har bir she’rining badiiy jihatdan mukammal bo‘lishiga intilgan.

N. ijodining F.ga ta’sirini quyidagi yo‘nalishlarda o‘rganish mumkin:

– F.ning N. g‘azallariga tatabbu’lari;
– F.ning N. g‘azallariga muxammaslari;
– F. ijodida navoiyona ohanglar.

F. N.ning “Aylab”, “Aylagach”, “Aylay desam”, “Bor”, “Isi”, “Kelmadi”, “Kishi”, “O‘lturg‘usi” radifli qator g‘azallariga tatabbu’lar qilgan. M-n, N.ning:

Gar bahor el topsa bo‘stondin gul-u rayhon isi,
Kelur ul rayhon ila guldin manga hijron isi, –

matla’li g‘azaliga:

Elga keldi to bahor ayyomi gar bo‘ston isi,
Yor ko‘yidin kelur menga guli rizvon isi, –

bayti b-n boshlanadigan tatabbu’ yozadi. Har 2 g‘azal ham 7 baytdan. G‘azal ham, tatabbu’ ham ramali musammani maqsur (foilotun foilotun foilotun foilun) vaznida. N.da *rayhon, hijron, bo‘ston, qon, jon, jonon, ehson, rayhon* so‘zlari qofiya bo‘lib kelgan bo‘lsa, F.da *bo‘ston, rizvon, jonon, rayhon, hijron, qon, jon, xandon* so‘zlari ohangdoshlik hosil qilgan. Tatabbu’da g‘azaldagi 8 qofiyadan 7 tasi takrorlangan – birgina “ehson” so‘zi o‘rniga “rizvon” so‘zi kelgan.

F. tatabbu’lari hamisha ham N. g‘azali b-n hamqofiya yoki hamradif emas – u ba’zida boshqa qofiya va radifda ham tatabbu’lar yaratadi. M-n., “koshki” radifli g‘azaliga boshqa qofiyada tatabbu’ qilsa, “kelmadi” radifli g‘azaliga “kelur” radifli tatabbu’ qiladi. M-n, uning:

Har kishikim, dahr aro sendek malaksiymosi bor,
Huri jannat yuziga boqmoqdin istig‘nosi bor, –

bayti b-n boshlanadigan g‘azali buyuk salafining:

Kimki oning bir malaksiymo parivash yori bor,
Odamiy bo‘lsa, pari birla malakdin ori bor! –

matla’li g‘azaliga ergashib yaratilgan.

F. N.ning “Yor bo‘lmoq tong emas men zor-u rasvo birla do‘st”, “Tun oqshom keldi kulbam sori ul gulrux shitob aylab”, “Sahvdur to‘bi demak ra’no niholingni ko‘rub” misralari b-n boshlanadigan g‘azallariga go‘zal taxmislar bog‘lagan.

F. muxammaslarida ham N. ijodining ta’siri yaqqol seziladi. M-n, quyidagi baytida ustoz shoir agar halovat istasang, dunyoni do‘st tutma, lekin har nima qilsalar ham oxirat ahli b-n do‘st bo‘l, desa, shogird uning bu fikrlarini asoslaydigan va to‘ldiradigan misralar tizadi: etagingni hirs loyi b-n bulg‘amaki, bu dunyoda bundan behuda ish yo‘q, holbuki, sen bir tomon-u dunyo, uning mashaqqatlari va uqubatlari bir tomon. Bu fikrlar taxmis bog‘lanayotgan g‘azal bayti b-n muvofiq tushib, payvand qilingan daraxtning shirin mevasiday ikki muallif qalami mahsuli bo‘lgan go‘zal bir bandni vujudga keltiradi:

Hirs loyi birla qilma domaning oludaliq,
Olam ichra bo‘lmag‘ay mundin yomon behudaliq,
Sen-u tashvish-u jahon-u ranj-u g‘amfursudaliq,
Bo‘lma dunyodo‘st, gar istar esang osudaliq,
Lek har ne qilsalar bo‘l ahli uqbo birla do‘st.

F. she’rlarida ulug‘ shoirdan ilhomlanish, ta’sirlanish samarasi to‘liq seziladi. Jumladan, “Sabog‘a xitob” masnaviysidagi:

Bor erkan Furqat otlig‘ bir g‘aribing,
Visoling davlatidin benasibing, –

bayti Shirinning Farhodga maktubida kelgan quyidagi bayt ta’sirida yozilgani shundoqqina ko‘rinib turibdi:

Nedur ahvoling, ey zori g‘aribim,
Visolim davlatidin benasibim?

Ma’lum bo‘ladiki, N. merosining F. ijodiga ta’siri keng va serqirra bo‘lib, bu ta’sir izlarini bir necha jihatdan o‘rganish mumkin.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Фурқат. Танлан-*

ган асарлар. 2 жилдлик. – Т., 1959; Фурқат. Танланган асарлар. – Т., 1958; 1975; Фурқат шеърияти-дан. – Т., 1980; Муқимий. Фурқат. Завқий. – Т., 1997; Расул Х. Фурқат. – Т., 1954; Абдуғафуров А. Фурқат // Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 9-жилд. – Т., 2005; Қаюмов П. Тазкираи Қайюмий. – Т., 1998, 1-2-китоблар; Жабборов Н. Фурқатнинг хориждаги ҳаёти ва ижодий мероси: манбалари, матний тадқиқи, поэтикаси. Докторлик диссертацияси. – Т., 2004; Бердимуродова М. Рожий тахаллусли 14 шоир // "Ўзбек тили ва адабиёти", 2006, № 3; Очилов Э. Фурқат (Рисола) // Нафис мажлислар, 2-жилд. – Т., 2018; Очилов Э. Фурқат ижодида Навоий анъаналари // "Ўзбек тили ва адабиёти» журнали, 2019, 6-сон.

E.O.

"**FURQATINGDIN ZA'FARON UZRA...**" – N.ning "G'.S." devoniga kiritilgan g'azali:

Furqatingdin za'faron uzra to'karmen lolalar,
Lolalar ermaski, bag'rimdin erur pargolalar.

Dur tishingdin donayi sabrim qolur bebar desam,
Kulub ayturkim, ekinning ofatidur jolalar.

Bargi gul uzra yopishibdur shakar har saridin,
Yo magar la'ling uza qaynabdurur tabxolalar.

Tola-tola nay o'qung ko'ksumda go'yo sindikim,
Tevruluptur notavon ko'nglumda bir-bir tolalar.

Fitnalik to'qquz falak girdingda, jono, turfadur,
Kim ko'ruptur bir quyosh davrinda mundoq holalar.

Bordilar ahbobu men yig'larmen o'z ahvolima,
Korvondin qolg'an it yanglig'ki, qilg'ay nolalar.

Ko'hi g'am bo'ldi Navoiy, lolalar – gulgun sirishk
Tog' agar budur, bale ashk o'lg'usidur lolalar.

Ramal bahrining ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan yetti baytli tavsif va izhor aralash bu g'azal ilk bor "B.B." devoniga kiritilgan, "X.M."ni tartib berishda esa N. uni "G'.S."ga joylashtirgan. G'azal baytlarida hijron azoblarini tortayotgan oshiqning qalb tuyg'ulari ma'shuqa go'zalligi vasfi b-n almashinib turadi. Ikkinchi bayt oshiq b-n sevgilining bevosita suhbati tarzida bitilgan:

"Dur tishingdin donayi sabrim
qolur bebar" – desam,
Kulur ayturkim: – "Ekinning ofatidur
jolalar!"

Bayt, ayni zamonda, tanosib san'atiga ham yaxshi misol bo'la oladi. Birinchi misradagi "dur" va "bebar" (mevasiz, behosil) so'zlari ikkinchi misradagi "jola" (do'l, shudring) va "ekin" so'zlari b-n shaklan va mantiqiy aloqaga kirishib (*mas: durning do'l yoki shudringga shaklan o'xshashligi*) bir-birini taqozo qiladi hamda umumiy g'oya qirrasining ma'shuqa go'zalligi va oshiqqa nisbatan berahm va muruvvatsizligining ochilishiga xizmat etadi. G'azalning yetakchi mazmuni b-n uzviy bog'lanmagan oltinchi baytda esa shoirning shaxsiy hayoti lavhalariga aloqador tarixiy voqealarga ishora bordek tuyuladi:

Bordilar ahbob-u men yig'larmen o'z ahvolima
Karvondin qolg'on it yanglig'ki, qilg'ay nolalar.

N.ning "H.S.H.A." asaridagi quyidagi xotirasi g'azalning 1455–56-yy.dan oldin yaratilgani hamda o'sha vaqtlardayoq katta shuhrat tutib, fozillarning yuqori baholariga sazovor bo'lganini ko'rsatadi: "Tarix sakkiz yuz oltmish erdi (mil. 1455–1456-yy.), bu faqir alar (Said Hasan Ardasher) suhbatig'a musharraf bo'ldum. Bu faqirni... nazm ayturg'a targ'ib ko'rguzurlar erdi. Chun ul avqotda (vaqtlarda) faqirning nazmlari Xurosonda shuhrat tutub erdi, alar (Said Hasan Ardasher) dog'i iltifot qilib ba'zi abyotni ko'p o'qurlar erdi va majolisda xushvakt bo'lurlar erdi. Ul jumladin, bu matla'durkim, fard:

Furqatingdin za'faron uzra to'karmen lolalar,
Lolalar ermaski, – bag'rimdin erur pargolalar".

Ab.H.

“FUSULI ARBAA” (“To‘rt fasl”) – “D.F.”dan o‘rin olgan qasidalar majmuasi. To‘rt qasidani o‘z ichiga olgan. Ular yil fasllari: bahor, yoz, kuz va qish manzarasi tasvirlariga bag‘ishlangan. N. tabiat go‘zalliklari orqali sulton Husayn Boyqaroni madh etadi. “Saraton” deb nomlangan qasida 71 baytdan iborat. Unda nasib (lirik kirish) kattagina qismni (yigirma besh bayt) tashkil qiladi. Qasida saraton kirib kelishi tasviri b-n boshlanadi:

Boz otashi xo‘r soxt samandar saratonro
Afro‘xt chu otashkada gulzori jahonro.

Tarj: Quyosh otashi saratonni yana samandarga aylantirdi, Jahon gulzorini otashkada kabi lovullatdi.

“Saraton”da gurizgoh (kirishdan asosiy qismga o‘tuvchi ko‘prik) nisbatan kichik– ikki baytdan iborat. Asosiy qismda sulton Husayn Boyqaro madh etilgan:

Z-in garmiyi xurshed birast, on, ki, panah soxt,
Zilli sharafi royati Jamshedi zamonro.

Tarj.: Quyoshning taftidan panoh izlovchi kishi, (uni) zamona Jamshidi tug‘i soyasining sharofatidan topqusidir.

Qasidaning qasd qismi olti bayt, o‘n ikki misrani tashkil qiladi. Unda shoirning lutf-u inoyatidan umidvorlik kayfiyati yoritilgan. Qasida hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf vaznida yozilgan.

“Xazon” (“Kuz”) qasidasi esa hazaji musammani solim vaznida bitilgan:

Digar shud bahri sanjidan barobar adli davronro,
Zi kofo‘ri zi mushk ro‘z-u shab du palla mezonro.

Tarj.: Davron adolatini o‘lchash mezonlari o‘zgardi, tarozuning bir pallasida (kunduzning ramzi) kofur, ikkinchisida (kechaning timsoli) mushk tortiladigan bo‘ldi.

33 baytdan iborat bu qasidada ruhiyat tasviri, kuzga xos o‘ychanlik, mahzunlik ustuvorlik qiladi. Unda Husayn Boyqaro madhi keltirilmagan. Shuningdek, “Xazon” tuzilishiga ko‘ra to‘liq qasida emas. Uning mujarrad shaklga ega ekani va Husayn Boyqaro siymosi keltirilmaganiga yo qasidaning matni to‘liq yetib kelmagani, yo N. kuzga xos mahzunlikni Husayn Boyqaro siymosiga ko‘chirishni istamagani sabab bo‘lishi mumkin (D.Yusupova).

“Bahor” qasidasida uyg‘oqlik ruhi, yangilanish va yasharish kayfiyati ustunlik qiladi:

Vazad bodi bahor ih’yoi amvoti gulistonro,
Zi anfosi Maseho toza sozad olami jonro.

Tarj.: Bahor shamolining esishi, guliston gullariga yangidan hayot bag‘ishlaydi, go‘yo Masiho nafasidan jonlar olamini yangilaydi.

Qasida 57 baytdan iborat. Unda hukmdor Husayn Boyqaro madhiga keng o‘rin berilgan. Shohning saxovati bahor quyoshiga, rahmdilligi bahor yomg‘iriga, janglardagi shijoati momaqaldiroq shovqiniga o‘xshatiladi:

Turo bo on tavonoivu zarbi teg‘i olamgir
Dihad ro‘ olami digar, ki rezy ashki g‘altonro.

Tarj.: Shunchalar qudrating-u olamni olishga qodir tig‘ zarbang b-n, ajib yumshoqliging ham borki, bunday paytlarda ko‘z yosh to‘kasan.

Qasida hazaji musammani solim vaznida bitilgan.

Oxirgi qasida “Day” (“Qish”) deb nomlanadi. Hajman 70 baytdan iborat. “Day”da nasib (lirik kirish) kattagina qismni egallaydi. U quyidagi bayt b-n boshlanadi:

Zi dargahi falak otash nuhuft dudi sahob,
Daro ba xirgah-u otash furo‘z az mayi nob.

Tarj.: Falak chodiridan ko‘rinayotgan otashni bulutlar pardasi to‘sdi, chodirga kirgin-u tiniq, qizil may otashiga zo‘r ber.

N. qish sovug‘idan panoh topish u-n anordek teshigi va tuynugi yo‘q bir xona izlashni, undagi donalar cho‘g‘, suvi esa tanani isituvchi qizil sharobday bo‘lishi kerakligini yozadi. Bu esa zamona hukmdori majlisini yodga soladi. Shu

tariqa qasidaning asosiy qismi Husayn Boyqaro madhiga bag‘ishlanadi. Shoir Husayn Boyqaro bazmlariga fayz-u quvvat tilaydi, qasidaning taxallus qo‘llangan bayti ham ko‘tarinki ruh, ezguliklardan umidvorlik hissi, sidq-u sodiqlik tuyg‘usi ifodalangan: Foniy taxallusining qo‘llanilishi shunga ishoradir:

Ba bo‘yi vasl nihad ro‘ ba dargahat, Foniy,
Chunon ki ahli ibodat ba go‘shayi mehrob.

Tarj.: Vasling bo‘yi umidida, Foniy dargohingga yuzini qo‘yadi, bu ibodat ahlining mehrob go‘shasiga bosh qo‘yishidekdir.

Qasidada aruz vaznining mujtass bahrida yozilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Болтаева Г. Алишер Навоийнинг “Фусули арбаа” асари таҳлили. – Самарқанд, 2000; Сирожиддинов Ш. Юсупова Д. Давлатов О. Навоийшунослик. – Т., 2018; http://quronov.narod.ru/smaqk8.html: Қуронов С., Юсупова Д. “Фусули арбаа” қасидасида бадиий синтез масаласи.*

M.A.

“FUSUS” (“Gavharlar”) – Shayx Muhyiddin ibn Arabiyning (1165 – 1240) 27 bobdan iborat falsafiy-tasavvufiy asari. “Fusus ul-hikam” (“Hikmat gavharlari”) deb ham yuritiladi. Vahdat ul-vujud ta’limoti talqiniga bag‘ishlangan. Keyinchalik olim bu asarning muxtasar xulosasi sifatida “Naqsh ul-fusus” (“Gavharlar sarasi”) asarini yaratgan. Lekin muallif asarni so‘zma-so‘z emas, balki mazmunan qisqartirgan. Jomiy mazkur mavzudagi asarlarning birortasida ma’no “F.”dagi kabi teran va yuksak shaklda o‘z ifodasini topmaganligini ta’kidlaydi. N. “N.M.” tazkirasida mazkur asar nomini bir necha bor tilga oladi. Xususan, Abu Nasr Porsoning “F.” – jondir, “Futuhot” – dil”, deb lutf etgani bayon qilinadi. “F.”ga bag‘ishlangan ko‘plab sharhlar yozilgan. Jumladan, Abdurazzoq Koshiy, Muayyadiddin Jandiy va Abdurahmon Jomiylar unga sharh yozishgan.

Ad.:*Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Ғаниева С. Навоий ёдга олган асарлар. – Т., 2004. Холмўминов Ж. Жомий ва ваҳдат ул-вужуд таълимоти. – Т., 2008.*

E.O.

FUTUVVAT – javonmardlik, himmatkorlik, karam, fidokorlik. Futuvvat, ya’ni javonmardlik ta’limoti va axloqi Sharq xalqlari orasida keng mavqe qozongan.

Mutasavviflarning nuqtayi nazari bo‘yicha futuvvat payg‘ambarlardan meros qolgan yuksak bir axloq yo‘lidir. Ayniqsa, Hazrat Ibrohim va Yusuf (a.s.)ga fato – yigit, ulug‘ himmat, jasorat sohibi deyilgan. Istiloh sifatida fato tasavvufga “Lo sayyora illo zulfiqor va lo fato illo Ali” – “Zulfiqordan boshqa qilich, Hazrat Aliga teng yigit yo‘q” hadisidan o‘tgan ekan.

Futuvvat ahli butunlay beg‘araz, hech bir manfaat kutmasdan boshqalarga yordam berib, ularning og‘irini yengil, mushkulini oson qilishgan.

Abdurahmon Sulamiy javonmardlikning talab va shartlarini quyidagi tarzda izohlagan: do‘stlardan hech narsani ayamaslik; yomonlikni ham yaxshilik b-n qarshilash; favqulodda kechirimli va andishali bo‘lish; axloq go‘zalligi u-n qayg‘urish; jo‘mardlik, tantilik, xolislikda hech qanday nuqsonga yo‘l qo‘ymaslik; mehmon va mehmondorchilikni yaxshi ko‘rish; ko‘zi to‘q, ko‘ngli keng bo‘lmoq; g‘arib-u g‘urabolarga mehr-shafqat ko‘rsatishda loqaydlikka hech yon bermaslik; faqat rost so‘zlash; omonatga sira xiyonat qilmaslik; botiniy tozalanishdan to‘xtab qolmaslik; har bir kimsaning nafsi, fe’l-atvori va ahvolini bilishda chalg‘imaslik; Allohga qullik shartlariga rioya etgan holda xalq manfaatini chuqur o‘ylash; o‘zgalarning qusur va kamchiliklaridan ko‘z yumib, o‘zining noqisliklari b-n mashg‘ul bo‘lish; balo, musibat yo kulfat kelganda xushnudlik b-n qarshilab, sira shikoyat qilmaslik; hech bir narsaga tobe va qaram bo‘l-

may, hur, to‘la erkin yashash; o‘zi yashamagan va boshdan kechirmagan holat va narsalardan gapirmaslik.

N. valiylarga bag‘ishlangan tazkirasi xususida: “chun bu valoyat riyozi muhabbat nasimig‘a muhib va futuvvat shamimig‘a sabab bo‘ldi, anga “Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim ul-futuvvat” ot qo‘ydum. Umidim ulki, bu nasoyimdin ruhlari toza va shamoyimdin ravhlari beandoza bo‘lg‘on azizlar qoyil ruhini biror duo bila yod va biror fotiha bila shod qilg‘aylar”, – deydi. F. tushunchasi N. u-n o‘ta muhim bo‘lganligi bois asarda ham bir necha shayx va murshidlarning javonmardlik to‘g‘risidagi fikr-mulohazalarini keltirib o‘tgan. Valiylarning fikrlari F. mazmun-mohiyatini anglashda muhim manba hisoblanadi. M-n, “Abu Hafs debdurki, “futuvvat – insof va adolat qilish, lekin ularni talab-qilmaslik”. “Abu Abdulloh Sijziydin so‘rdilarki, futuvvat nedur? Dedikim, xaloyiqni ma’zur tutmoq. Ulcha alarga o‘tar va o‘z taqsirin ko‘rmak va shafqat borcha elga ne solih, ne tolih. Va futuvvatning kamoli uldurki, kishini xalq Tengridin mashg‘ul qila olmag‘aylar”. “Abubakr Shabahiy (q.s.) debdurki, “futuvvat – xushxulqlik va ezgu saxovatdir”. Dostonlarida ham F. g‘oyalarini targ‘ib qiladi va qahramonlari ta’rif-tavsifida yuksak maqom sifatida e’tirof etadi. “L.T.” dostonida Amirul-mo‘minin Usmoni zunnurayn (r.a.) haqida shunday deydi:

Ul hayo koniki nurul-ayn edi,
O‘ylakim aynayn zun-nurayn edi.

Sidq koni-yu muruvvat maxzani,
Hilm bahri-yu futuvvat ma’dani.

“M.Q.”da F. va muruvvatga to‘xtalib o‘tgan. Bu ikki tushunchaning eng ixcham va go‘zal ta’rifini shoir bir fardda bayon qilgan:

Muruvvat barcha bermakdur, yemak yo‘q,
Futuvvat barcha qilmakdur, demak yo‘q.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

I.H.

G

GADOIY (1403/1404 – Hirot – XV asr oxiri) – shoir. G.ning hayoti va ijodi haqida, deyarli, ma'lumotlar saqlanib qolmagan. "M.N." tazkirasida N. shoir ijodiga yuksak baho beradi:

"Mavlono Gadoiy – turkigo'ydir, balki mashohir (mashhurlar)dindur. Bobur Mirzo zamonida she'ri shuhrat tutti. Bir nav'i aytur va uning mashhur matla'laridan biri budurkim:

Ohkim, devona ko'nglum mubtalo bo'ldi yana,
Bu ko'ngulning ilgidin jong'a balo bo'ldi yana.

Mavlononing yoshi to'qsondan o'tibdur. Bu matla' aningdurkim:

Dilbaro, sensiz turiklik bir baloyi jon emish
– Kim, aning dardi qoshida yuz o'lum
hayron emish".

N.ning ushbu ma'lumotiga asoslanib, S.G'aniyeva G.ning tug'ilgan yilini 1403–1404 (808 hijriy)-yy. deb belgilash mumkin, degan fikrni ilgari suradi. Chunki "M.N." 1490–1491 (896 hijriy)-yy.da yaratilgan.

N. "M.L." asarida ham turkigo'y shoirlar haqida fikr yuritganda G.ni Sakkokiy, Haydar Xorazmiy, Atoiy, Muqimiy, Yaqiniy va Amiriylar qatorida tilga oladi: "To mulk arab va sort (fors) salotindan (sultonlar) turk xonlarig'a intiqol (o'tish) topti, Hulokuxon zamonidan sultoni sohibqiron Temur Ko'ragon zamonidin farzandi xalafi (voris) Shohrux Sultonnning zamonining oxirigacha turk tili bila shuaro (shoirlar) paydo bo'ldilar. Va ul hazratning avlod va ahfodidin (nabiralar) ham xushtb' salotine zuhurg'a (paydo bo'lish) keldi: shuaro Sakkokiy va Haydar Xorazmiy va Atoiy va Muqimiy va Yaqiniy va Amiriy va Gadoiydeklar".

N.dek ulkan shoir va talabchan she'rshunos tomonidan iste'dodli shoir sifatida e'tirof etilishi va she'rlarining yuksak baholanishining o'zi G.ning katta iste'dod egasi ekanligini ko'rsatadi. Lekin u bizga ancha kech – o'tgan asrning 60-yillarida ma'lum bo'ldi. Bunga sabab shoir devonining topilmaganligi edi. G.ning yagona devoni Parij Milliy kutubxonasida saqlanadi. 1961-y. da turk olimi Ekmann tomonidan shoirning 50 ta she'ri Istanbulda e'lon qilinadi. Shundan keyin o'zbek matbuotida S.G'aniyeva, E.Rustamov, E.Ahmadxo'jayevlarning G. haqidagi maqolalari bosiladi. Shu nashr asosida shoir she'rlari so'zboshi b-n nashr qilinadi. Nihoyat,1973-y.da Parij qo'lyozmasi asosida G. devoni bosilib chiqadi. 1988-y.da "O'zbek adabiyoti bo'stoni" seriyasida bosilib chiqqan "Hayot vasfi" to'plamida G.ning hozirgacha topilgan barcha asarlari to'liq bosildi.

G. adabiy merosidan faqat birgina devon bizgacha yetib kelgan. Uning hozircha yakka-yu yagona nusxa hisoblangan qo'lyozmasi Fransiyada–Parij Milliy kutubxonasida 981 inv. raqami ostida saqlanmoqda. Bu qo'lyozma hajmi 66 varaq bo'lib, shoirning 230 g'azal, 1 qasida, 1 mustazod va 5 to'rtligini o'z ichiga olgan. Devondagi G. merosining umumiy hajmi 2974 misradir. Qo'lyozmaning so'nggi varag'i yo'qolgani u-n uni ko'chirgan kotibning nomi va ko'chirilish sanasi ma'lum emas. Bu nusxa xat uslubi va boshqa belgilariga ko'ra XV asrning 2-yarmi XVI asr boshlariga mansub. G. devoni Lutfiy devoni b-n bir muqovada.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т.,2011; Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Гадоий. Шеърлар. – Т., 1965; Гадоий. Девон. - Т., 1973; Ҳаёт васфи. – Т., 1988; Ўзбек адабиёти тарихи. 1-жилд. – Т., 1977; Аҳмадхўжаев Э. Ҳаёт ва инсон мадҳияси // Ҳаёт васфи (Ҳофиз Хоразмий, Саккокий, Атойи, Гадоий). – Т., 1988; Эсманн. Седаи диванидин парсалар \\ Турк дили ве эдебижати дергиси. Силт Х. – Истанбул, 1960; Ғаниева С. Шоир Гадоий // Ўзбекистон маданияти, 1962, 1 сентябр; Рустамов Э. Узбекская поезия в первой половине XВ века. – М., 1963; Аҳмадхўжаев Э. Гадоий ижодининг ўрганилишига доир; Гадоий девонининг нодир нусхаси ҳақида // Адабий мерос, 1971, № 2; Шоир Гадоийнинг бадиий маҳоратига доир // Адабий мерос, 1973, № 3; Очилов Э. Туркона шеърият \\ – Барҳаёт сиймолар. - Т., 2012.*

E.O.

GAVGAMELA JANGI (er. av. 331-y.) – Aleksandr Makedonskiy b-n Eron shohi Doro (Yevropa tarixchilari Dariy deb ataydilar) o‘rtasida bo‘lib o‘tgan hal qiluvchi jang. Eramizdan oldingi 331-y.da Gavgamela degan kichik bir joyda bo‘lib o‘tgan. Aleksandr bu jangda o‘zgacha usul qo‘llagan. Odatda, u dushman qo‘shini b-n yuzma-yuz kelganda birinchi bo‘lib hujum qilar, tez va shiddatli zarba berar edi. Doro qo‘shini ana shunday hujumni kutib shay bo‘lib turgan. Lekin Aleksandr ataylab jang boshlamagan. Uning hujumini kutib, bir necha kun uxlamagan forslar u endi jang boshlamaydi, deb hushyorlikni yo‘qotgan vaqtida kutilmaganda zarba bergan. Urush Doroning mag‘lubiyati b-n tugagan.

N. “S.I.” dostonida ushbu jang tasvirini bergan. Albatta, shoir voqealarni badiiylashtirib hikoya qilgan va Sharq adabiyotida jang tasvirlari u-n xos bo‘lgan usulni qo‘llagan. Shu sababli unda jangning haqiqiy tafsilotlaridan ko‘ra badiiy taxayyul ko‘proq o‘rin tutadi. N. dostonida bayon etilganlardan faqat Doro qo‘shinining son jihatdan ko‘pligi va uning mag‘lubiyati, Iskandarning g‘alaba qilgani haqidagi so‘zlar tarixiy haqiqatga mosdir. Tarixchi Arrian Doro qo‘shinining soni million kishi bo‘lgan, deb ma’lumot beradi. N. Doro qo‘shinining son-sanoqsiz ekani haqida yozadi:

Sipohiyki yer sathig‘a sig‘mayin,
Cherik hargiz andoq kishi yig‘mayin.

Adadda falak anjumidin fuzun,
Ne anjum, biyobon qumidin fuzun.

Ushbu jang haqida N. “T.M.A.” asarida ham to‘xtalib o‘tgan. N.ning yozishicha, Doroning mag‘lubiyatga uchrashiga unga qilingan xiyonat sabab bo‘lgan: “Doroning ikki noibikim, aning zulmidin toriqib erdilar, ani halok qildilar”. Shu b-n birga u boshqa versiyalarni ham keltiradi: “Ba’zi debturlarkim, ikki hamadonlig‘ kishi fidoyilig‘ dasturi bila bu ishni qildilar. Ba’zi debturlarkim, alarni Iskandar yiborib edi”. Doroning o‘z kishilari tomonidan o‘ldirilgani to‘g‘ri, buni tarixiy manbalar tasdiqlaydi. Lekin bu G.J. paytida bo‘lgan emas. Doro mazkur urushda mag‘lubiyatga uchrasa-da, o‘ldirilmagan va qochib ketishga muvaffaq bo‘lgan va keyinchalik o‘z lashkarboshisi tomonidan o‘ldirilgan. N.ning Iskandarning jon berayotgan Doro tepasiga kelib, uning oxirgi so‘zlarini eshitgani, unga achingani haqida yozganlari ham tarixiy haqiqatga xilof emas, lekin bu ham G.J.da emas, undan keyin yuz bergan. Yengilib qochgan Doroni quvib kelayotgan Aleksandr Doroga o‘z odamlari suiqasd qilgan paytda yetib kelgani va unga shafqat ko‘rsatgani ham tarixiy manbalarda qayd etilgan.

Shunday qilib N.ning Doro va Iskandar o‘rtasidagi hal qiluvchi jangning (G.J.) “S.I.” dostonidagi badiiy talqinida va “T.M.A.” asarida bergan ma’lumotlarida tarixiy haqiqat b-n rivoyatlar, voqealarning badiiylashtirilgan tasviri qo‘shilib ketganini ko‘rish mumkin.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ.*

10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Всемирная история. – Минск, 2008; История древнего мира. Древний Восток. – Минск-Москва, 2000.

Q.E.

GAVHARSHODBEGIM (Gavharshodxotun) (1379–1457) – temuriy malika, Shohrux Mirzoning katta xotini, donishmand hukmdor Ulug‘bek Mirzoning onasi. Amir G‘iyosiddin Tarxonning qizi. Uning oqil, g‘ayratli, bir so‘zli, tadbirkor, husn bobida ham benazir malika bo‘lganligi va Hirot madaniy, ma’rifiy hayotiga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatganligi haqida ko‘plab tarixiy va adabiy manbalarda ma’lumotlar saqlanib qolgan. O‘z davrining mashhur shoirasi Mehri Hiraviy uning nadimi bo‘lgan. U temuriylar Uyg‘onish davrining murabbiy va muqavviylaridan biri sifatida Hirot va Mashhad shaharlarida madrasa, Jome’ masjidi, xonaqoh kabi ko‘plab ijtimoiy xarakterdagi inshootlar qurdirgan. Shohrux Mirzo vafotidan so‘ng temuriy shahzodalar o‘rtasidagi toj-u taxt talashishi b-n bog‘liq bo‘lgan siyosiy mojarolarga aralashgan va oqibatda sakson yoshida fojeali o‘lim topgan.

N. G.ga “V.” asarida *Mahdi ul’yo* va *Bilqisi uzmo* deb e’tirof b-n xabar bitgan. “M.N.” tazkirasining Mavlono Savsaniy, Mavlono Ma’sud, Mavlono Xojaga bag‘ishlangan fiqralarda esa G. nomi, u qurdirgan “Gavharshodbegim” madrasasini hamda Mashhadda qurdirgan Jome’ masjidini tilga olgan: “Mavlono Ma’sud – Shirvondindur. Holo Mahdi ul’yo “Gavharshodbegim” madrasasida va yana ba’zi madorisda mudarrisdur”. Yoki: “Mavlono Xoja – Mashhadda imom Ali Muso ar-Rizo (shayhittahiyati vas-sano) ravzasida imom va muarrifdur va “Gavharshodbegim” masjidi Jome’da xatibdur” kabi.

Bobur “Boburnoma”da G.ning madrasa va maqbarasini, Jome’ masjidini Hirotdagi mashhur obidalar qatorida tilga olgan. Oybek “Navoiy” nomli tarixiy romanida uning Hirotda qurdirgan “Gavharshodbegim” madrasasining tasvirini bergan, P.Qodirov esa uni *ona lochin* deb sifatlab, malika haqida alohida tarixiy roman yozgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Вақфия. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Бобур. Бобурнома. – Т., 2002; Файзиев Т. Темурий маликалар. – Т., 2013; Қодиров П. Она лочин видоси. – Т., 2001.*

B.R.

GAVHARSHODBEGIM MASJIDI – XV asrga mansub Hirot me’moriy yodgorligi. Shohrux Mirzo (hukmronlik yillari 1409–1447)ning xotini Gavharshodbegimning buyrug‘iga ko‘ra, xurosonlik mashhur me’mor Qavomiddin Sheroziy 20 yil mobaynida (1418–1438) qurgan. U katta masjid, madrasa va maqbaradan iborat mukammal me’morchilik ansambli hisoblanib, G.M. nomi b-n mashhur. Maqbaraga Gavharshodbegimning o‘zi va ahli oilasi dafn etilgan. Keyin uning yonida Husayn Boyqaro katta madrasa va xonaqoh qurdirgan.

1432-y.da nihoyasiga yetgan G.M. hovlining shimolida bo‘lib, koshinlar b-n bezatilgan. Aylana tarhli maqbaraning qovurg‘ali gumbazi o‘ziga xos jozibaga ega. Gumbaz sirkor g‘isht terib naqshlangan. “V.” asarida N. uni “koshisi girihkorlig‘idin aql me’mori hayron va shamsasi zarnigorlig‘idin xirad muhandisi sargardondur” deb ta’riflaydi. Maqbarani bino qilishda Qavomiddindan tashqari me’mor Imomiddin, naqqoshlar Xoja Mirali Hiraviy va Xoja Mirak Hiraviylar ham ishtirok etganlar. Ichini Boysung‘ur Mirzo bezatgan. 1885-y.da bu ansambl Amir Abdurahmon to‘plari o‘qidan vayron bo‘lib, faqat maqbara va minoralarga ziyon yetmagan.

Ad.: *Алишер Навоий. Вақфия. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; ЎзМЭ. 2-жилд. – Т., 2001; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 2. – Душанбе, 1989.*

E.O., B.R.

GALYAUTDINOV Ishmuxamet Gilmutdinovich (1948–2015, Ufa) – f.f. d-ri, prof., Boshqirdiston Fanlar akademiyasi muxbir a’zosi.

Faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha turkolog, sharqshunos, arxeolog, folklorist.

Olimning “Памятники “Сабат ад-гаджизин” и “Рисала и Газиза” и их значение для истории литературного языка” mavzusidagi loyiha doirasida “Восточные рукописи и творческое наследие Алишера Наваи в Башкортостане” (Проблемы востоковедения, 2011. №3 (53): 43-47) nomli maqolasi e’lon qilingan. Maqolada sharqshunos olimlar Rizo Faxretdinov (1859–1936), Ahmat Zaki Validiy (1890–1970) N. ijodining boshqird xalqi orasida ommalashuvida xizmati katta bo‘lgani aytiladi. 1908-y. Orenburgda chiqa boshlagan “Sho‘ro” jurnali muharriri R.Faxretdinov “Mashhur odamlar va ulug‘ hodisalar” rukni ostida 163 ta Sharq va G‘arb adiblari ijodidan namunalar e’lon qiladi. Jurnalning 1909-y. 7-sonida R.Faxretdinov “Alisher Navoiy” nomi ostida shoirning ijodiy biografiyasini yoritadi. Shuningdek, jurnal sahifalarida N. g‘azali, portreti, qurdirgan madrasalari surati ham bosiladi. Olim xuddi shu tarzda N. ijodi b-n tanishishni boshladilar, deydi. Ahmad Zaki Validiy ham maqolalarida turkiy til rivojida N., Lutfiy, Bobur, Maxtumquli kabi shoirlarning roli katta bo‘lganini aytib o‘tganini ta’kidlaydi.

Olim Ufa FA ilmiy markazida “G‘.S.”ning bir qo‘lyozmasi nusxasi (35, 6 x 57, 8 sm, 149 s., inv. rB 1475), “X.”ning toshbosma nusxasi (– T., 1905. 508 b. inv. rB 1299), A.Z.Validiy nomidagi Milliy kutubxonada 1849-y.da Namanganda Muhammad Amin Boboxon tomonidan ko‘chirilgan “S.S.”ning qo‘lyozma nusxasi (26x15,5 sm, 171 s., inv. 123/1226), “X.”ning 1893-y. Porsev matbaasida nashr etilgan toshbosma nusxasi (25x44 sm, 508 s., inv. 177/4566) saqlanyotganini aytadi. “M.L.” asarini turkiy tilning mavqeyini ko‘tarishdagi o‘rnini tahlil qiladi va boshqa asarlarini sanab o‘tadi. Maqola Ural-Povolje hududida N. tavalludining 570 yilligini nishonlash arafasida yozilgani aytilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Востоковедение в Башкортостане: сборник научных статей, посвященных памяти членакорреспондента Академии наук Республики Башкортостан, доктора филологических наук, профессора Ишмухамета Гильмутдиновича Галяутдинова / сост. А.Г.Салихов и др.. Вып. 1. – Уфа: ИИЯЛ УФИЦ РАН, 2018; Галяутдинов И.Г. Восточные рукописи и творческое наследие Алишера Наваи в Башкортостане // Проблемы востоковедение. 2011. №3 (53).*

S.O‘. Sh.R.

GANJA – hozir Ozarbayjon Respublikasining madaniy markaz shaharlaridan biri. Qadimiy kent. G. haqida ko‘plab yozma manbalarda tarixiy ma’lumotlar uchraydi, lekin G.ni mashhur qilgan shu shaharda tug‘ilib, “Xamsa”ga asos solgan xamsanavis Nizomiy Ganjaviydir. Nizomiy Ganjaviydan keyin yashab ijod qilgan va o‘zini unga ma’nan shogird deb bilgan qalam ahli Nizomiy Ganjaviyni tilga olgan tasvir, lavhada G. shahrini ham esga olgan yoki talmeh san’ati yordamida ishora qilgan. Jumladan, N. ham turkiy tilda “Xamsa” yozar ekan, albatta, dostonlarining Nizomiyga bag‘ishlangan boblarida G. shahrini ta’rif-tavsif qilgan.

“S.S.”ning so‘z b-n bog‘liq 6-bobida Nizomiy yurti G. quyidagicha tilga olingan:

Ganja ahlig‘a bazlasanj erdi,
Dahr vayronasida ganj erdi.

“S.I.”ning so‘z ta’rifiga bag‘ishlangan 6-bobida G. va Ganjaviy parallel holda ishlatilgan hamda mahorat b-n o‘zakdosh so‘zlar yasagan:

Bu ganj olgon ul nodiri fard erur
Ki, ganji aning Ganjaparvard erur.

Ham ul ganjrez-u ham ul ganjposh,
Bo‘lub bazlidin dahr aro ganj fosh.

Nechakim ochib ganj to‘kmakka qo‘l,
Vale maxzani roz ganjuri ul.

N. “M.N.” tazkirasining Abdurahmon Jo-

miyning yaqin qarindoshi bo‘lmish Mavlono Abdullo haqidagi fiqrada uning manmanligini ko‘rsatish u-n uning o‘zini Firdavsiy, Nizomiy, Dehlaviylar b-n qiyoslashini salbiy bo‘yoqlarda ko‘rsatib bergan. Chunonchi: “Mavlono Abdullo – agarchi zohir yuzidin hazrat Maxdumi Nurang‘a o‘zin qarobat tutar, ammo ma’ni yuzidin bag‘oyat yiroqdur. Soyir she’r asnofidin masnaviyg‘a ko‘proq iltifot qiluri uchun malik ul-kalom Firdavsiy Tusiy va hazrat Shayx Nizomiy Ganjaviy va sulton ush-shuaro amir ul-umaro hazrat Xoja Xusrav Dehlaviy “Shohnoma” b-n “Xamsa”ni masnaviylarikim, bo‘lg‘ay pisand qilmas. Bahs balki hazrat Maxdumi Nuranning masnaviylarig‘a borurkim, pisand qilur, yo yo‘q. Biz faqirlarkim, bu jamoatning rezachini xoni va xo‘shachini xirmoni tutarbiz, balki ul hunar va qobiliyat ham yo‘q va mundoq qishi she’ri ne istehqoq bila ta’rif qila olg‘aybiz; Har necha dag‘i andoq bo‘lsa tabarruk haysiyatidin ul nazm qilg‘on “Zafarnoma” masnaviysidin bu uch bayt bitildi”.

Demak, N. G. shahri haqidagi tasvirlarini, avvalo, “X.”ning so‘z b-n bog‘liq barcha boblarida Nizomiy Ganjaviyning badiiy mahoratini yuksak baholagan va uning qadrdon shahri bo‘lgan G. shahrini tilga olishga harakat qilgan. Yoki boshqa asarlarida G. shahri b-n bog‘liq lirik lavha va nasriy bayonlarda ham Ganjaviy hurmati u-n G. yodga olingan.

Ad.: *Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

B.R.

GANJI BODOVARD – sosoniylar sulolasidan bo‘lgan Eron shohi Xusrav Parviz tasarruf qilgan xazina. U asli Rum qaysariga (Vizantiya imperatoriga) tegishli bo‘lgan. Xazina oltin, kumush va qimmatbaho buyumlardan iborat edi. Rumliklar uni bir yerdan boshqa yerga olib bormoqchi bo‘lib, kemalarga ortganlar. Xazina jami mingta kemaga joy bo‘lgan. Kemalar daryoda kelayotganda kuchli shamol esib, ularni Madoyin tomonga olib kelgan. Madoyin Xusravning poytaxti edi. Shu tariqa ushbu misli yo‘q ulkan xazina Xusrav qo‘liga tushgan.

G.B. haqida N. asarlarida ham ma’lumot berilgan. “T.M.A.” asarida Xusrav Parviz zikrida ushbu xazinaga to‘xtalib o‘tilgan va shunday ma’lumot berilgan: “Ganji Bodavard anga nasib bo‘ldi. Va ul ming kemada oltun va kumush va javohir va nafois erdikim, Rumdin necha ming yilda qayosiradin qolg‘on erdi ... daryo bila elturda el ani Madoying‘a kelturdi va ul tasarruf qildi va ani “Ganji Bodavard” dedilar”.

“F.Sh.”da N. o‘zidan oldin bu mavzuda asar yozgan adiblar Xusravga maddohlik qilganlari haqida yozadi va bunda ham G.B.ni tilga oladi:

Vale chekkanlar ushbu jomdin roh,
Sarosar bo‘ldilar Xusravg‘a maddoh.

Ki mulki andoq-u oyini mundoq,
Sipohi andoq-u tamkini mundoq.

Gahe Shabdezi olamgirdidin deb,
Zamone ganji bodovardidin deb.

Ma’lum bo‘ladiki, ushbu xazina N.ning salaflari asarlarida ham tilga olingan.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Низомий. Хусрав ва Ширин. – Т., 2003.*

Q.E.

GANJI QORUN – Muso (a.s.)ning amakivachchasi Qorunning xazinasi. Qissa-yu rivoyatlarga qaraganda, Qorunning 440 ming xalta oltin-kumushi bo‘lgan. U go‘yo o‘zining aqli, uddaburonligi, kimyogarligi orqasida shunday boyib ketgan emish. Aslida, ulumi g‘ariba va fununi ajibani Alloh taolo Muso (a.s.)ga bergan bo‘lib, u bu ilmlardan kimyoni imkoni yetgani qadar Qo-

runga o‘rgatadi. N.ning yozishiga ko‘ra, Qorun sehrgarlik ilmiga qiziqib, u b-n qattiq mashg‘ul bo‘ladi. Qorunning boyligi mislsiz bo‘lib, mol-u dunyosi yer-u ko‘kka sig‘magan, xazinalarining kalitlarini 40 ta xachir ko‘tarib yurgan. Lekin u qancha boy bo‘lsa, shuncha baxil bo‘lgan. Oxir-oqibat Muso (a.s.)ning duoyibadiga uchrab, Qorunni butun xazinasi b-n birga yer yutadi.

N.ning barcha tur asarlarida (umuman butun Sharq adabiyotida) ancha keng ishlatilgan obrazlardan biri. “T.A.H.”da keltirilgan rivoyat zaminida yuzaga kelgan G.Q. birikmasi badiiy obraz sifatida katta boylik, ulkan javohirlar xazinasi ma’nolarini bildirib keladi.

Nasibi aning bir ayoq osh erur, bas,
Agar ganji Qorun erur muddaosi.

Shoir qit’alarining biridan olingan bu baytda ham, doston va g‘azallaridan o‘rin olgan quyidagi misralarda ham shu mazmun ifodalangan:

G‘animat ko‘rdi har yon haddin afzun,
O‘qulgon har taraf yuz ganji Qorun.
Podshohekim, qanoat maxzanin istar, erur
Bir gododekkim, xayoli ganji Qorun soridur.

“G‘.S.”ga kirgan g‘azallarida uchrovchi mana bu baytlarda “T.A.H.”da keltirilgan rivoyatga ochiq ishora etiladi:

Chu ko‘mdung yerga Qorun
ganji hukmi tutdi, ey mun’im,
Tutaykim, naqd ila bo‘ldi
xizonang ganji Qorundek.

Manga tama’ karam ahlidin o‘ldi may vajhi,
Yo‘q ersa yer quyi ul ganjkim, yig‘ar Qorun.

Quyidagi baytda esa Qorunning o‘z xasisligi u-n yer yutganiga kinoya etiladi:

Yer ostidin kir ila la’lni chiqar, ey mug‘
Ki, bordi yer quyi, chun so‘z eshitmadi Qorun.

N. g‘azallaridan olingan mana bu misollarda G.Q. obrazi umuman nafi tegmagan mol-u mulk, foydalanilmagan boylik, yer yutgan xazina, sovurilgan sha’n-u shavkat ma’nolarida qo‘llanilgan:

Nedur uchmok joh ila oxir falak Namrudning
Osmoniy taxt-u johin ganji Qorun qildilo.

Moldin umrunga osoyish agar etmas, ne sud
Nuh umri, hosil etsang ganji Qorun qozg‘onib.

“S.I.” dostonida esa faxriya uslubida bitilgan quyidagi baytlarda N. o‘z “X.”sining yozib tugatilgan to‘rt dostoni (“H.A.”, “F.Sh.”, “L.M.” va “S.S.”) ulkan badiiy boylik, ma’naviy-estetik xazina sifatida baholaydi hamda ularni G.Q.dan afzal qo‘yadi:

... Ki chun “Xamsa” azmin durust ayladim,
Kamargohig‘a panja rust ayladim.

Yetushmay ko‘p ul ishta panjamg‘a ranj,
Nasib o‘ldi besh ganjidin to‘rt ganj.

Ne vasf aylayin, chunki har kim yetar,
Taammul agar qilsa – ma’lum etar.

Ki, ganj o‘yla yo‘qtur Faridung‘a ham,
Faridun demay, balki, – Qorung‘a ham!

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-жилдлар. – Т., 2011.*

A.A.

GEMINATSIYA – harflarni ikkilantirish. N. asarlariga grammatik sharh yozgan Mirza Muhammad Mahdixon “Maboni ul-lug‘at”da geminatsiya – harflarni ikkilantirish, ya’ni tashdid b-n talaffuz qilinishiga ham e’tibor bergan. Uning ko‘rsatishicha, shoir asarlarida to‘rtta son ikkilantirilgan harflar b-n ham, bir harf b-n ham

ishlatilgan: *ikki – iki, yetti – yeti, sakkiz – sakiz, to‘qquz – to‘quz.* Undan tashqari *soqol* so‘zi ham ikki xil ishlatilishi ko‘rsatilgan: *saqqol – soqol*.

Olim “F.Sh.” dostonining “Podshoh vasfi” bobida yetti so‘zining har ikki shaklda ishlatilganini qayd etadi:

Shukuhung jabhasidin chun Surayyo
Yeti qatra araqdek yetti daryo.

Ushbu baytda olim fikricha, birinchi sonda bitta “t” (yeti) ikkinchi sonda tashdid b-n, ya’ni ikkita “t” ishlatilgan. Shoir asarlarida 7 so‘zi ko‘proq *yeti* shaklida uchraydi:

Berdi roviy fasonag‘a taqsim
Dedi: “Sayr ayladim yeti iqlim”.
Vale suv ihota qilibdur ani,
Erur yeti iqlim ochuq qolg‘ani.

Mirza Mehdixon *sakkiz* so‘zi ham ikki xil ishlatilganini qayd etib, “S.S.”dan quyidagi baytni misol sifatida keltiradi:

Poya o‘rnida sekiz anga sutun,
Ostida berkitib sakiz gardun.

Ushbu baytda birinchi misradagi son tashdid b-n, ya’ni ikki “k”, ikkinchi misradagi son bir “k” b-n yozilgan.

Olimning ma’lumotlariga qaraganda, 9 soni ham ikki xil yozilgan: *to‘qquz* va *to‘quz*:

Zihi javlongohing aflok uza maydoni adno,
Buraqinga to‘quz gunbad bu
to‘qquz gunbadi hazro.

Ushbu baytda birinchi son bitta “q”, ikkinchisi tashdid b-n, ya’ni ikki “q” b-n yozilgan.

Darhaqiqat, ushbu son shoir asarlarida ikki xil shaklda uchraydi:

Mato’ anda harneki ashe kelib,
To‘quz-to‘quz andin muhayyo kelib.

Birdan keyingi “2” so‘zi tashdid, ya’ni ikki “k” b-n ham bir “k” b-n ham ishlatilgan. Ikki so‘ziga quyidagi baytni keltirish mumkin:

Bir la’lg‘a necha xora otmoq,
Ikki tosh arosida ushatmoq.

Ikov so‘zi uni bir “k” b-n ishlatilishiga misol bo‘la oladi:

Haqdin ikov oni istagaylar
Paydovu nihoni istagaylar.

Ushbu sonlardan *iki* shoir asarlarida ko‘proq uchraydi:

Bo‘lub o‘n iki ming jazoir tamom,
Munung birla o‘n oltida vassalom.

8 soni ham g‘azallarda ikki xil – tashdidli va tashdidsiz shaklida uchraydi. Quyidagi baytda shoir bu so‘zning har ikkala shaklidan mahorat b-n foydalanadi:

Navoiy, o‘n sakiz ming olam ichra
bor esa rasvo,
Tong ermas, chunki bo‘lmish
mahvashining yoshi o‘n sakkiz.

Misoldan ko‘rinib turibdiki, shoir vazn talabi b-n birinchi misrada bu sonni bitta “k” b-n, ikkinchi misrada tashdid b-n ishlatgan.

Soqol so‘zi nashrlarida ko‘proq bir “q” b-n yozilgan:

Qarig‘a tavba-yu taqvo kerak va gar bu hiraf,
O‘zini yig‘masa, xushtur saqolig‘a kulmak.

Mahdixon qayd etgan bu so‘zlardan tashqari shoir asarlarida 30 soni ham ikki xil shaklda uchraydi. Goh bir “t” b-n:

Bo‘ldilar zoye’, quyub bu yo‘lda yuz,
To bu dargohg‘a yetishtuk biz o‘tuz.

Goh iki “t” b-n:

Chun ul o‘ttuz qushqa bu erdi xayol,
Muncha ko‘rgandin o‘kush ranj-u malol.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011.*

E.U.

"GENIAL SHOIR VA MUTAFAKKIR" – taniqli adabiyotshunos olim Natan Mallayevning ulug' shoir tavalludining 525 yilligi munosabati b-n uning hayoti va ijodi haqida yozgan risolasi (1968). Unda N. davri, adabiy muhiti, hayoti va faoliyati, ijodining asosiy yo'nalishlari, janrlar tarkibi, she'rlarning mavzu ko'lami, obrazlar olami, badiiy xususiyatlari muxtasar tarzda yoritilib, "X." dostonlari, "L.T.", "M.N.", "M.Q.", "M.L.", "M.A." kabi yirik asarlari haqida alohida-alohida ma'lumot beriladi. Shuningdek, shoir asarlarining tarjimalari tarixiga to'xtalib o'tiladi. Risolada N. hayoti va faoliyatining muhim sanalari, shoir asarlarining ro'yxati, u haqda yaratilgan tadqiqotlar, N. nomi b-n ataluvchi joylar nomi ham ilova qilingan.

Risolada muallif N.ning o'zbek adabiyotida tutgan o'rni haqida, jumladan, shunday yozadi: "Ko'p asrlik o'zbek klassik adabiyoti taraqqiyotida ulug' shoir va mutafakkir N.ning ijodiy faoliyati eng yuksak bir cho'qqi bo'ldi. U o'zigacha bo'lgan o'zbek adabiyoti takomiliga bir yakun yasadi, uni yangi taraqqiyot pog'onasiga ko'tardi va kelajagini belgiladi, o'zidan keyingi so'z san'atkorlari ijodida buyuk ustoz sifatida chuqur iz qoldirdi. Shu b-n birga, N. o'zbek klassik adabiyotini jahon miqyosiga olib chiqdi, o'zi esa jahon adabiyotining buyuk siymolari qatoridan joy oldi. Uning nomi va merosi Gomer va Firdavsiy, Nizomiy va Rustaveli, Shekspir va Balzak, Pushkin va Tolstoy nomi va merosidek mangudir".

Ad.: *Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-жилдлар. – Т., 2011; Маллаев Н. Гениал шоир ва мутафаккир. – Т., 1968.*

E.O.

GESU (GISU) (f.) – soch, kokil, zulf. O'rib, ikki tomonga tashlangan uzun soch.

Tasavvufda g'ayb olami bo'lmish Haq jamoli va visoliga yetish va U b-n birga bo'lishni talab qilish yo'li. Ya'ni visol orzusi va unga intilish. Talab yo'li. N. she'riyatida ham shu kabi ma'nolarni ifodalab keladi. M-n:

To tushubmen ul uzor-u ikki gesu hajrig'a,
Ey quyosh, rahm aylakim, bo'lmish
bir oy-u ikki yil.

Ad.: *Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-жилдлар. – Т., 2011; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва табъироти ирфоний. – Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.); Истилоҳоти сўфиён. – Теҳрон. 1388 (ҳ.-ш.); Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005; Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 2. – Душанбе, 1988; Фарҳанги забони тожики. Жилд 1. – М., 1969.*

E.O.

GETINAMO – jahonni ko'rsatuvchi jom. Jomi jahonbin (jahonni ko'ruvchi), Jomi Jamshid, Jomi Jam (Jamshid ismining qisqartirilgan shakli), Jomi getinamo (jahonni ko'rsatuvchi jom), Jomi getiafro'z (olamni yorituvchi jom), Jomi Iskandar, oyinai jahonnamo nomlari b-n ham yuritiladi. Rivoyat qilishlaricha, qadimgi Eronning afsonaviy podshohi Jamshid jomi jahonnamo – jahonni ko'rsatuvchi jom ixtiro qilgan bo'lib, unda nafaqat hozirgi, balki o'tmishda yuz bergan va kelajakda sodir bo'ladigan voqea-hodisalar ham aks etar ekan. N. bu haqda shunday yozadi:

Ki, olamni olg'onda Jamshidshoh
Kim, ul xusrave erdi hikmatpanoh.

Necha yil yig'ib hikmat ahlin tamom,
Tilisim ettilar sa'y etib iki jom.

Birisin dedi: Jomi Getinamoy,
Birisin dedi: Jomi Ishratfizoy.

May qadahi va komil inson qalbini ham ilohiy sirlarni o‘zida saqlashi jihatidan Jamshid jomiga nisbat beradilar. Jamshid jomidagi may ichgan b-n sira tugamas emish.

Tasavvuf falsafasiga ko‘ra, dunyo hirs-u havasi, nafs istak-xohishlari va jismoniy intilishlardan najot topgan ko‘ngil shaffof ko‘zguday yaraqlab, Jomi jahonnamo kabi bo‘lar va unda hamma narsa aslidagidek aks etar ekan. Shuning u-n ham komil orifning qalbi va Haq mardining botinini Jamshidga nisbat beradilar. “Solik bu “jomi jahonnamo”ga nazar solib, uning sirlaridan ogoh bo‘ladi hamda qalbini g‘urur va o‘zligidan xalos etib, do‘st ishqi b-n limmo-lim to‘ldiradi”. Umuman, Jomi jahonnamo ilohiy nur jilvasi va ma’rifat siriga oshno ko‘ngil ma’nosida keladi.

Oyinayi jahonnamo aslida oshiq solikning qalbi. Dunyo, nafs, vujud tashvishlaridan qutulgan, ularning borligini unutib, butun fikr-u zikrini yagona Allohga qaratgan insonning qalbi oyinaday pok bo‘lib, jumla, olam, kurrayi zaminda yuz berayotgan voqealar unda aks etadi. Bu haqda N. shunday yozadi:

Xurshedi jahonkushoy sen sen,
Mir’oti jahonnamoy sen sen.
Kim qildi sanga nazarni ravshan,
Ko‘rdi yer-u ko‘kdagin muayyan.

farzandi g‘am-u hasratida dunyodan o‘tgani-yu, Laylining jon taslim qilayotgani ham uning ko‘ngil ko‘zgusida namoyon bo‘ladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-жилдлар. – Т., 2011; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва табъироти ирфоний. – Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.); Истилоҳоти сўфиён. – Теҳрон. 1388 (ҳ.-ш.); Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005; Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 2. – Душанбе, 1988; Фарҳанги забони тожики. Жилд 1. – М., 1969.*

M.A., E.O.

GIRSHOSB – peshdodiylar sulolasiga mansub hukmdorlardan biri. U eroniy xalqlarning afsonaviy pahlavonlaridan ham hisoblanadi. Bu nom “Avesto”, “Bundahish” va ilk islom davrida yaratilgan adabiy asarlarda uchraydi. G. siymosi Abulmuayyad Balxiyning bizgacha yetib kelmagan “Kitobi Girshosb” asarida o‘zining mukammal tajassumini topgan. Asadiy Tusiy bu asar asosida o‘zining “Girshosbnoma” dostonini yaratgan. “Shohnoma” va “Girshosbnoma”da tasvirlanishicha, G. – seyistonlik pahlavon va Rustami dostonning bobokaloni. Lekin N. bu fikrlarga qo‘shilmaydi. Uning “T.M.A.”da yozishicha, G.ning onasi Ya’qub (a.s.)ning o‘g‘li Ibni Yaminning qizi bo‘lib, otasi Zob ibn Tahmosbning qarindoshi edi. Ko‘plab tarixiy kitoblarning Rustami dostonning uning naslidan deyishlari haqiqatdan yiroq. Chunki Rustamning otasi Zol uning sarkardasi edi. Uningcha, “Tarixi guzida” va boshqa bir qancha tarixchilarning G.ni Manuchehrning nabirasiga chiqarishlari ham noto‘g‘ri. Rustamni esa Som binni Narimon binni Atrub binni Obting‘a eltib bog‘lashlari ham xato. G. hukmronligi davrida Afrosiyob yana Eronga qo‘shin tortib kelib, ikki o‘rtada qattiq jang bo‘ladi va G. unda halok bo‘ladi. Zoli Zar Zobulistondan lashkar tortib kelib, Afrosiyobni Erondan haydab chiqaradi. G.ning qancha muddat saltanat qilgani ham bahsli: “Nizom ut-tavorix” va Banokatiy tarixida 20 yil deb ma’lumot berilsa, “Guzida” b-n “Muntaxab”da 6 yil, ba’zi manbalarda esa 5 yil deyiladi.

G. “S.I.”da ham qadimgi Eron shohlari qatorida tilga olinadi:

Chu olam tihi bo‘ldi Tahmsobdin,
Zamon zeb-u far topti Garshosbdin.

Falak tavsanin garchi rom ayladi,
Chu vaqt o‘ldi, ul ham xirom ayladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988.*

E.O.

GOZURGOH – Hirotdagi mozor va ziyoratgoh. Shaharning shimoliy tomonidagi tog‘da joylashgan. Xoja Abdulloh Ansoriy qabri boshida bunyod etilgani u-n Ansoriya ostonasi ham deb ataladi, Ziyoratgohga Shoxrux Mirzo tomonidan 1425–1427-yy.da asos solingan. Uning o‘rtasidan Husayn Boyqaro qazdirgan ariq o‘tgan. Xondamirning “Xulosat ul-axbor”da yozishicha, nafaqat Xurosonda, balki olamning, obod manzillarida ham bunday havosi jonbaxsh, suvi mazalik joy topilmaydi.

N.ning “Xam.M.” manoqibida o‘qiymiz: “Podshoh ul yilki, Xuroson taxtin olg‘ondakim, “Jahonoro” bog‘i tarhin soldilar. Bir panjshanba kuni ul hazrat xizmatlarida Gozurgohdin Dasht yuzi birla Xiyobon sari boriladur erdi”.

N. davrida G. yanada obod bo‘lgan. Ma’lumki, Husayn Boyqaro va N.ning Xoja Abdulloh Ansoriyga ixloslari baland bo‘lgan. Xondamir “M.A.”da Husayn Boyqaroning “Agar men davlat ishlaridan voz kechadigan bo‘lsam, Shayx Najmiddin Kubro mozorida turaman yoki Xoja Abdulloh Ansoriy ostonasini supuruvchi bo‘laman” degan so‘zlarini keltirgan. N.ning bu zotga bo‘lgan hurmat va ixlosi esa uning “N.M.” asarida bitilgan so‘zlardan ko‘rinib turadi. Hayotining oxirigi yilida N. umrining qolgan qismini Gozurgohni obod qilishga sarflashga ahd qilgan va bunga Sulton Husayn Boyqarodan maxsus vakolat olgan (Saraxs, 1499-yil). Keyin Hirotga kelib, Gozurgohda katta xayr-ehson o‘tkazgan. Xondamirning yozishicha, 75 ta qo‘y, 20 ta ot so‘yilgan, 30 botmon qand tayyorlangan, shundan so‘ng, ko‘pchilikning fotihasini olib, bu yerda qurilish va obodonchilik ishlarini boshlagan. U mozorning sharq tarafida xonaqoh qurdirgan. O‘sha paytlarda, xususan, 1499-y.da N. o‘z vaqtining katta qismini Gozurgohda o‘tkazgan. Bu haqda “Makorim ul-axloq”da shunday ma’lumot beriladi: “O‘sha yili ulug‘ amir ko‘p vaqt Gozurgohda bo‘lardi. Ansoriya ostonasining kun chiqish tarafiga xonaqoh bino qildi, imkoni boricha ul ulug‘ zot mozorining obodonchiligiga urinardi”. Buyuk shoir va davlat arbobining sa’y-harakatlari tufayli ushbu mozor va ziyoratgoh yanada ko‘proq fayz kasb etgan. Bu yerda ziyoratchilar u-n qulay sharoitlar yaratilgan va G. Hirotning eng obod joylaridan biriga aylangan.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Хамсат ул-мутаҳаййирин. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Ғиёсиддин Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Т., 1967; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985; Абдураззоқ Самарқандий. Матлаъи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. – Т., 1969.*

Q.E.

“GUZIDA” (“Saylanma”) – Hamdulloh bin Abubakr bin Ahmad bin Nasr Mustavfiy Qazviniyning (1280–1349/50) eng qadimgi davrdan 1329/30-y.gacha bo‘lgan voqealarni umumiy tarzda qamrab olgan tarixiy asari. “Tarixi guzida” (“Saylanma tarix”) deb ham yuritiladi. U vazir Rashididdin Fazlullohning “Jome’ ut-tavorix” (“Tarixlar to‘plami”) (1300–1311) asaridagi ma’lumotlar asosida yozilgan bo‘lib, uning o‘g‘li va o‘rinbosari Xoja G‘iyosiddin Muhammadga bag‘ishlangan. Asar muqaddima, 6 bob (har bir bob yana fasllarga bo‘linadi) va xotimadan iborat. “G.” Movarounnahr va Eronning siyosiy va madaniy tarixini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. “Jome’ ut-tavorix” asosida yozilgan bo‘lishiga qaramay, unda muallif arab va fors tillaridagi ishonchli manbalardan olgan ko‘plab diqqatga sazovor ma’lumotlar uchraydi. Asarning 5–6-boblari o‘sha davr ilm-u adab ahli va Qazvin geografiyasiga oid qimmatli ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. U o‘z davrida yaratilgan boshqa tarixiy asarlardan sodda uslub va tushunarli tilda yozilgani b-n alohida ajralib turadi. “G.” dunyoning ko‘plab tillariga tarjima qilingan. Eronda uning ilmiy-tanqidiy matni yaratilgan. N. o‘zining tarixiy asarlari, xususan, “T.M.A.”ni yozishda undan keng foydalangan. Ba’zan u b-n bahsga kirishadi. Jumladan, ashkoniylar sulolasi hukmdorlarini 15 nafar deb ko‘rsatgan shoir “G.” muallifining ularni uch guruhga bo‘lib, 20

ta deb ko‘rsatganiga va ularning hukmronlik yillarini ham har xil belgilaganiga qo‘shilmaydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Дурдонаҳои наср. Жилд 2. – Душанбе, 1989.*

E.O.

GUL – Sharq adabiyotining yorqin va keng iste’molda bo‘lgan obrazlaridan biri bo‘lib, bu o‘zakdan hosil qilingan *“gulzor, gulshan, gulistan”, “gulro‘y, gul’uzor, gulyuz”, “gulgun, gulrang, gulnor, gulira’no”, “gulgasht, gulbong, gulfishon, gulob, gul bargi, gul mavsumi, gulbahor”* kabi ko‘plab so‘zlar N. ijodida yetakchilik qiladi. Bu timsol va tushunchalar o‘zida ko‘pincha ramziy mazmunni mujassam etadi. Irfoniy adabiyotda gul – ilohiy go‘zallik, u Muhammad (s.a.v.) siymosiga ham ishora qiladi. Shu sababdan “vardi Muhammadiy” yoki “guli Muhammadiy” iboralari tez-tez uchraydi. Boshqa tarafdan esa, sarv vahdat (yagonalik, birlik)ni, gul esa kasrat (ko‘plik)ni tamsil etgani u-n “sarvi gul” mazmunidagi so‘z birikmalarida kasrat ortiga yashirilgan vahdatni anglash lozim bo‘ladi.

Butmadi gulshan tavofi birla bag‘rim yorasi,
Bermadi o‘tumg‘a taskin sarv-u gul nazzorasi.

Yorning raso, benuqson qaddini yodga soluvchi sarv daraxti, mahbubaning gulrang yuzini eslatuvchi gul oshiqqa tasalli bergandek tuyuladi.

Bir zamone sarv-u bir dam gulga ko‘p qildim nazar,
Bo‘lmadi ul sarvi gulrux furqatining chorasi.

Bir sarvga, bir gulga qayta-qayta qarasam-da, bu gulruh sarvqaddan ayrilig‘imning mashaqqatlariga chora bo‘la olmagan edi. Bu o‘rinda “bir zamon”, “bir nafas” Haqning fayzidan iborat bo‘lgan rahmoniy nafasni bildiradi.

Sarv-u gul maftuni bo‘lmokim, nigor-u zeb uchun,
Sindurub har dam uzar oni falak makkorasi.

Chinakam oshiqlik maqomini ko‘zlagan, niyati xolis, Allohning rizoligini ko‘zlagan, Muhammad (s.a.v.)ning shafoatlaridan umidvor solik zeb-ziynat, ko‘z-ko‘zlash, munofiqlik, o‘tkinchi chiroy u-n maftun-u shaydolik qilar ekan, makkor falak bunday kimsani har damda halokatga uchratadi, riyodan yaralgan muhabbat jomini, ya’ni ko‘ngulni sindirib, sarv-u gulning barglari kabi yaproq shaklidagi yurakni uzib otadi. Baytda ana shunday mazmunlardan baxs yuritilgan.

Umuman, gul obrazi Alloh, Muhammad (s.a.v.), yor, kamolot sohibi, diydor timsoli sifatida ulug‘ shoir dunyoqarashining muhim jihatlarini anglashimizga yordam beradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Ислом энциклопедияси. – Истанбул, 1999; Нажмиддин Шаҳинлар. Қора ва яшил: Қуръонда ранг символизми. – Истанбул, 1999.*

M.X.

“GULI VA NAVOIY” – Oybek qalamiga mansub doston 1968-y.da adib vafotidan uch oy oldin tugallangan. Adabiyotshunos N.Karimovning ta’kidlashicha: ***“****U o‘z romanini tarix hujjatlari va zamondoshlar xotiralariga asoslangan holda yozgani uchun Navoiy hayotining bu noma’lum va qorong‘i sahifasiga nazar tashlashni munosib topmagan. Tarixiy manbalarda esa ulug‘ shoirning shaxsiy hayoti, sevgisi tarixi xususida biror ma’lumot berilmagan. Ana shu tufayli Oybek so‘nggi kunlariga qadar o‘zini kitobxon oldida qarzdor deb his qiladi. So‘nggi yilllari yaqinlashgan sari shu masala borasida o‘z so‘zini qoldirib ketishga oshiqadi****”***. Doston o‘zbek xalq afsonasi sifatida, masnaviy yo‘lida yozilgan bo‘lib, 872 misradan iborat.

Asar ilk marta 1968-y. 25-sentyabrda adibning umr yo‘ldoshi Zarifaxonimning izohi b-n gazetada bosilgan. Shu yilning o‘zida “Fan” nashriyoti tomonidan kitob holida ham nashr etilgan.

Doston N. b-n oddiy bog‘bon qizi Guli o‘rtasida tug‘ilgan go‘zal, samimiy muhabbat haqida. Oybek qalamida N. sevgisi shunday jozibador

tasvirlanadiki, bu sevgi shoirning, nafaqat Guliga bo‘lgan muhabbatidan, balki el-u ulus, yurt va Vatan, so‘z va ma’rifatga bo‘lgan mehridan yanada to‘yinadi, yuksaladi. Afsuski, “G.N.” dostonida ham “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” dostonlarida bo‘lganidek sevishgan qalblar birga bo‘lolmaydilar. Ovga ketayotgan Husayn Boyqaro tasodifan daricha oldida turgan Gulini ko‘rib sevib qoladi. Podshohning xohishi oldida bog‘bon ham uning qizi ham chorasiz ekanini anglagan N. bunday vaziyatda noiloj qoladi. Hech narsadan xabari yo‘q Boyqaro Gulini haramiga keltiradi. Guli o‘z sevgisiga sodiq qolishi u-n zahar ichadi va halok bo‘ladi. N. bir paytlar “L.M.” sevgi tarixini yig‘lay-yig‘lay tugatganidek, Mavlono Oybek ham “G.N.” dostonini ko‘zda yoshlar b-n oxirlatgan bo‘lsa, ne ajab:

Gul yuziga qo‘ndi tabassum,
Yumdi ko‘zin, quchmishdi o‘lim.
Navoiy qon yig‘lar edi jim,
Oqdi yoshlar, oqdi betinim…

Ad.: *Ойбек. Гули ва Навоий. Достон. – T., 1976; Каримов Н. XX аср адабиёт манзаралари. – T., 2008.*

E.O., B.R., S.O‘.

GULANDOM – “F.Sh.” dostonida tasvirlangan Mehinbonu saroyidagi o‘n kanizakdan biri. Ularning nafaqat ismi, jismi ham go‘zal: “Bari ham sarvqomat, ham dilorom”. Buning ustiga, ularning har biri bir sohada tengsiz: biri she’r, biri musiqa, biri tarix, biri hisob, biri mantiq (logika), biri nujum (astronomiya), biri balog‘at (adabiyot nazariyasi), biri hikmat (falsafa), biri haqoyiq (mavjudot haqiqatlari haqidagi fan), biri muammo yechishda o‘z davrining eng oldi bo‘lgan: bu fanlarning yuzlab ustasidan bularning bittasi mohirroq edi:

Bu fanlarda bular bir-birdin ahsan,
Yuz, ul fanliq aro har qaysi yakfan.

Lekin shoir ularning qaysi biri qaysi sohada mohirligini aniq qilib ko‘rsatmagan – biri u, biri bu hunarda mumtoz deb umumiy yo‘sinda ta’kidlab o‘tadi. Nomlar va hunarlar ketma-ketligi bo‘yicha G. “hay’at ruqumig‘a qalamkash” bo‘lib chiqadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – T., 2011.*

E.O., M.M.

GULGUN – ot nomi. N. asarlarida otlar b-n bog‘liq epizodlar ko‘plab uchraydi. Biz ularda Shabdez, Sarius-sayr, Ashhab singari otlar tilga olingani va ta’rif etilganini ko‘ramiz. G. ham shulardan biri. “S.S.” dostonidagi to‘rtinchi hikoyat voqealarida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Mas’udning ta’rif va tavsifini eshitgan shoh Jo‘na yashirincha, o‘zini tanitmay, oddiy bir musofir sifatida Mas’udning shahriga keladi. Mas’ud necha kunlar uni mehmon qilib, misli ko‘rilmagan saxovat va insoniylik ko‘rsatadi, jumladan, unga bir ot tortiq qiladi, bu G. edi. Jo‘naning nazarida Mas’udning barcha qilgan mehmonnavozliklari bir, bu ot bir edi. Chindan ham asarda G.ga berilgan ta’rif uning nodir mavjudot ekanligidan dalolat beradi:

Olibon keldi barq raftori,
Sayr aro barqdin namudori.

Gomi “Shabdez”din kelib afzun,
Rangi gulgun-u oti ham Gulgun.

Bir parivash hayuni dev najod,
Balki dev-u pari bila hamzod...

Bir muncha vaqtdan so‘ng Jo‘na qaytishni ixtiyor qiladi va Mas’udga mehmonnavozligi u-n minnatdorchilik bildirib, yo‘lga otlanadi. Shoh to Dehligacha G.ni minib keladi:

Bo‘ldi Gulgun uza jahonpaymo,
Ursa mahmiz osmonpaymo...

Shah chu Gulgunni qildi dasht xirom,
Tutti Dehlida ul kun-o‘q orom.

N. hikoyatda G.ning badiiy sifatini yana bir karra oshiradi. Yuqorida aytilganidek, Jo‘na Mas’ud huzurida mehmon bo‘lar ekan, unga o‘zini tanitmagan edi. Keyinchalik Mas’ud boshiga tushgan kulfatlar tufayli Jo‘na saroyiga kelib qolganida, u yerda mehmonga o‘zi sovg‘a qilgan ot – G.ni ko‘radi:

Bog‘ aro chunki kirdi ul mahzun,
Axtachi ilgida edi Gulgun.

Chun nazar qildi dasht paymog‘a,
Ko‘zi ul lahza tushti tamg‘og‘a.

Angladikim, erur hamul markab,
Soldi hayrat hazin ichiga taab.

Shu tariqa G. bu o‘rinda o‘ziga xos ramz, belgi vazifasini bajaradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011.*

A.A.

“GULISTON” – Sa’diy Sheroziyning axloqiy-didaktik asari. N. bolalikda sevib o‘qib-o‘rgangan darslik kitobi. Fors-tojik mumtoz nasrining yetuk namunasi bo‘lgan mazkur asar 1258-y.da Sherozda yozilgan. U 8 bob, 182 ta hikoyatdan iborat bo‘lib, tarkibiy tuzilishi quyidagicha: debocha; 1-bob – podshohlar siyrati zikrida; 2-bob – darveshlar axloqi zikrida; 3-bob – qanoat fazilati zikrida; 4-bob – sukut saqlashning foydalari zikrida; 5-bob – ishq va yoshlik zikrida; 6-bob – qarilik va zaiflik zikrida; 7-bob – tarbiyat ta’siri zikrida; 8-bob – suhbat odobi zikrida.

Bir umr xalq ichida yashagani, hayotning butun achchiq-chuchugini totgani u-n ham Sa’diy asarlari boshqa Sharq shoirlarinikidan hayratlanarli darajada hayotiyligi b-n alohida ajralib turadi. Uni Sharq adabiyotshunoslari vuqu’go‘y, ya’ni hayotni bor bo‘yicha tasvirlaydigan adib, deyishadi. “Bo‘ston” va “G.” hayotiy hikoyatlardan tashkil topgani, donishmand shoirning bu hikoyatlar so‘nggida qissadan hissa tarzida keltirgan she’rlari real turmushdan chiqarilgan xulosalar ekanligi b-n ham jahon ilm-u adab ahlini birday o‘ziga tortib kelmoqda.

“G.”ga ergashib ko‘plab asarlar yozilgan, lekin ulardan faqat 3 tasi: Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston”i, Majiddin Xavofiyning “Xoriston”i, Habib Qooniyning “Parishon”i shuhrat qozongan.

“G.” qadimdan o‘zbek xalqi orasida ham mashhur bo‘lib, madrasalarda asosiy darsliklardan biri sifatida o‘qitilib kelgan. N. “L.T.” dostonining “Bu kitob nazmida o‘z munosabatining tarqibi” nomli bobda “Yodima mundoq kelur”, deya bolalik xotiralariga asoslanib, hasbi hol xarakterida ilk savod olish jarayonlarini tasvirlaydi. Unda o‘zi kabi bolalarning savod chiqarishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan kitoblardan Sa’diyning “G.” va “Bo‘ston” kabi mashhur asarlarini talmeh san’atining ochiq va murakkab turlari vositasida yodga olgan:

Istabon tashxisi xotir ustod,
Nazm o‘quturkim, ravon bo‘lsun savod.

Nasrdin ba’zi o‘qur ham doston,
Bu “Guliston” yanglig‘-u ul “Bo‘ston”.

“N.M.”da esa Sa’diy haqida yozar ekan, “Shayxning ash’ori devoni va “Bo‘ston” masnaviysi” va “Guliston” kitobi va soyir kutubi va rasoyili... mashhurdurki, andin biror nima irod qilg‘ay”. N.ning “M.Q.”, Xojaning “Gulzor”, Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” singari asarlari bevosita “G.” ta’sirida yaratilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Саъдий Шеърозий. Гулистон. – Душанбе, 1988; Саъдий Шерозий. Гулистон. – Т., 1968; 1993; 2012; Уч булбул гулшани. – Т., 1988; “Гулистон” // Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Д., 1988; Шомуҳамедов Ш. Саъдий Шерозий. –*

T., 1964; Саломов Ғ. Таржима назариясига кириш. – T., 1978; Комилов Н. Ҳикматлар хазинаси // Саъдий Шерозий. Гулистон. – T., 1993; Очилов Э. Ҳаёт муаллими // Саъдий Шерозий. Маърифат ёғдуси. – T., 2015; Алишер Навоий. Лисон ут-тайр (насрий баёни билан). Сўзбоши муаллифи, изоҳ ва луғатлар тузувчиси Раҳмонов В. – T., 1991; Раджабова Б. Ўзум сори боқма, сўзум сори боқ. – T., 2015.

E.O., B.R.

GULOB – atirgul suvi, atirgul bargini qaynatib, bug‘latib olinadigan xushbo‘y suv. Bu xushbo‘y suv maxsus gulobxona (uy)larda tayyorlangan va saqlangan. N. she’rlari va dostonlari matnida gulob so‘zi uchraydi. Shopur Salosil qo‘rg‘onida hushsiz yotgan Farhodning yuziga G. sepib, o‘ziga keltiradi va Shirindan keltirilgan “maktubu maqsuda”ni qo‘liga beradi:

Ki, ul yanglig‘ gulob urg‘och yuziga,
Ochib bedil ko‘zin, keldi o‘ziga.

Chu ul ko‘rdi muni, bu ko‘rdi oni,
Ikkovlon tortibon muhlik navoni.

N. g‘azallarida ham G.ni o‘rni b-n qo‘llagan.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – T., 2011.*

M.A.

“GUL’UZORIM” – Hoji Abdulaziz Abdurasulovning N.ning “Bir paripaykar g‘ami oshuftahol etmish meni” misrasi b-n boshlanadigan g‘azaliga bitilgan muxammasga bastalagan kuyi. Har banddan keyin “Ey gul’uzorim, voo-yey, rahm ayla nigorim” naqaroti takrorlanib kelgani u-n shu nom b-n atalgan. “G.” “Eshvoy” nomli cholg‘u kuyi va “Shashmaqom”dagi “Rost” maqomining “Savti Ushshoq” sho‘basi asosida yaratilgan bo‘lib, 3/4 o‘lchovli harakatchan taronalar usulida ijro etiladi. Bastakor “Turk avji” kuyidan mohirona foydalangan. “G.”ning daromadi “Uzoll” sho‘basi b-n boshlanib, “Dunasr”dan keyin keladigan avj qismida esa “Turk avji”dan ijodiy foydalanilgan. U farovard b-n nihoyasiga yetadi. O‘zbekiston, Tojikiston va boshqa xalqlar o‘rtasida keng tarqalgan. “G.”ni O.Imomxo‘jayev, O.Alimaxsumovlar mahorat b-n ta’sirchan shaklda ijro etishgan. “G.” cholg‘u kuyi sifatida ham ijro etiladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик, 3-жилд. – T., 2011; ЎзМЭ. 3-жилд. – T., 2002; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988.*

E.O.

“**GULSHANI ROZ**” – Mahmud Shabustariyning nomini dunyoga tanitgan mashhur asari. Tasavvuf ta’limotining eng asosiy masalalari va muhim tushuncha-istilohlarini nazmiy talqin qilgan bu asar nafaqat so‘fiylar va oriflar, balki ma’rifat asrori b-n qiziqqan barcha toifani birday o‘ziga jalb etib kelgan. U 1317-y. hazaji musaddasi maqsur (mahzuf) vaznida yaratilgan bo‘lib, mingdan ortiq baytni o‘z ichiga oladi. Asarning yozilish tarixi nihoyatda qiziq: xurosonlik shayx-shoir Amir Husayn Hiraviyning o‘z davri aql sohiblarini qiynagan savollar haqidagi she’riy nomasini elchi Mahmud Shabustariy ishtirokchisi bo‘lgan davraga kelib o‘qib beradi. Mahmudning ustozi bo‘lgan Aminiddin Tabriziy bu savollarga javob berishni unga topshiradi. Mahmud avvaliga nasriy asarlarida ayni masalalarga javob berib o‘tganini bahona qilib, javob qaytarishni xohlamaydi, lekin elchi bu gal nazmiy javob talab qiladi. Shundan keyin u darhol badiha tarzida barcha savollarga javob qaytarib, elchi b-n birga Hiraviyga jo‘natib yuboradi. Oradan bir muddat o‘tgach, elchi bu masalalarni kengroq bayon etishni so‘raydi va Mahmud bir necha soat ichida “Gulshani roz” masnaviysini yozib tugatadi.

N. temuriyzodalardan Abulqosim Boburning ham tasavvufga oid asarlardan Faxriddin Iroqiyning “Lama’ot”i b-n Mahmud Shabustariyning “G.R.”iga muhabbati ayrichaligi haqida “M.N.”da ma’lumot beradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Шайх Маҳмуд Шабустарий. Гулшани роз. – Теҳрон, 1382 (ҳ.-ш.); Шайх Маҳмуд Шабустарий. – Т., 2013; Исмаилов Ш. Философия Махмуда Шабустари. – Баку, 1976; Муҳаммадризо Барзгар Холиқий. Муқаддимае бар "Гулшани роз" // Шайх Маҳмуд Шабустарий. Гулшани роз. – Теҳрон, 1382 (ҳ.-ш.); Камолиддин Ҳусайн Гозургоҳий. Мажолис ул-ушшоқ. – Теҳрон, 1376 (ҳ.-ш.); Ризоқулихон Ҳидоят. Тазкираи "Риёз ул-орифин". – Теҳрон, 1388 (ҳ.-ш.); Маҳмуди Шабустарий // Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 2. – Душанбе, 1989; Гулшани роз // Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988; Латипов Ҳ. Маҳмуд Шабустарий ва унинг "Гулшани роз" асари // "Ўзбек тили ва адабиёти", 2011, № 4.*

E.O.

GULSHAHRIY VA NAVOIY – Fariddidin Attorning "Mantiq ut-tayr"iga javob yozgan shoir. Gulshahriyning asari turkiy tilda yaratilgan. Ma'lumki, "Mantiq ut-tayr" asari turkiylar o'rtasida keng yoyilgan edi. Bir qator turkiyzabon shoirlar asarni bevosita turkiy tilga tarjima etib, ba'zilari unga javob yozgan, yana boshqalar esa undagi g'oya va syujetdan foydalanganlar. Mazkur doston mavzusida yaratilgan asarlar orasida N.ning "L.T." dostoni alohida o'ringa ega. N.ning mazkur asari Gulshahriyning "Mantiq ut-tayr" asaridan keyin bitilgan. Avvalo, har ikki dostonning bir-biriga yaqinlik jihatlari mavzu xarakteri b-n bog'lanadi. Ayni paytda bir katta mavzu ustida bahs etgan bu ikki asarni boshqa qator jihatlar bir-biriga yaqinlashtirib turadi.

"Mantiq ut-tayr" mavzusi Sharq falsafasida keng tarqalgan "vahdati vujud" nazariyasini ifoda etadi. Chunonchi, Gulshahriy o'z dostonida ilohiy ishq tasviriga to'xtab yozadi:

Oshiq uldurki, olamdan kusa,
Ko'nglini har yor zulfundin osa.

G'am-u alamdin kusub yora ira,
Tark eta yori va jabbora ira.

N. ham o'z dostonida ishq-muhabbat to'g'risida shunga o'xshash mulohaza yuritadi:

Kimki oshiqdur – anga jondin ne bok,
Kufr olib bermak imondin ne bok.

Gar kerak oshiqqa o'z jononidin,
Sahl erur kechmak jahon-u jonidin,

Jon erur oshiq yo'lida saddi roh,
O'ylakim bo'lg'ay birov yo'linda choh.

Fard erur oshiq tan-u jondin dog'i,
Aql-u hush-u kufr-u imondin dog'i.

Shu masala munosabati b-n keltirilgan "Shayx San'on" hikoyasi har ikki dostonda bir-biriga bir muncha yaqindir. Dostonga asos bo'lgan g'oya b-n bog'liq holda o'rtaga tashlangan boshqa axloqiy-didaktik masalalar ikkala asarda mushtaraklik kasb etadi. Gulshahriy va N.da ham o'rinsiz gapirmaslik, mol-mulk to'plashga moyil bo'lmaslik, shuhratga rag'bat ko'rsatmaslik, nafsni tiyish, tamadan chekinish kabi hayotiy masalalar o'z aksini topgan va ular o'sha masalalardan kelib chiqadigan g'oyalar b-n san'atkorona uyg'unlashtirilgandir.

Bundan tashqari bu ikki shoirni yaqinlashtiruvchi boshqa muhim xususiyatlar ham ko'zga tashlanadi. Davrning muhim muammolari to'g'risida bahs etish, mavjud vaziyatni to'g'ri aks ettirish muhim tadqiqot obyekti bo'lgan masalalardir. Mazmunga uyg'un xarakter yaratish b-n uni o'z davri odamlariga yaqinlashtirishga harakat qilish masnaviylar u-n xos xususiyatdir. Gulshahriyning asarida yo'lga chiqishga hozirlik ko'rayotgan Hudhudga murojaat qilib aytilgan so'zlarda shoirning diniy-e'tiqodiy qarashlarining sharhi b-n bir qatorda uning zamondoshlarini qiziqtirib kelayotgan boshqa masalalar ham aks etadi. Shoirning fikr-mulohazalaridan kelib chiqib, davrning ahvol-ruhiyasi,

falsafiy qarashlari haqida tasavvur hosil qilish mumkin bo‘ladi. U zamon ahlining johilligidan so‘z ochadi, layoqatsiz shayxlarni tilga oladi. To‘g‘ri, shoir ko‘p vaqt bunday masalalardan uzoqroqda turadi, shikoyat b-n kifoyalanadi. Lekin bu shikoyatlarda ham bir umumlashma, davrga, zamonasidagi haqsizliklarga jiddiy e’tiroz bilinib turadi. Dostonda ilm, to‘g‘rilik, halollik, adolat kabi jamiyat u-n ahamiyatli bo‘lgan masalalar haqida mulohaza yuritadi. Ba’zan rahnamolik ramzi sifatida gavdalangan Hudhudning tili b-n, ba’zan lirik chekinishlarda ilmning ahamiyati, davlatning iqtisodiy va madaniy ravnaqida adolatning roli va o‘rni haqida bahs etadi:

Podshoha adl uchun rahbar o‘la.
Mulkatin tuprog‘i gavhar o‘la.

Boshqa bir yerda:

Hudhud aytur adl sarlashkar durur,
Dina pushtu davlati yovar durur.

Zulm muncha mulkati veranqila,
Kim geru adl ani obodan qila.

Ayni masalalar N.da ham o‘z badiiy ifodasini topgan. Xususan, zamondoshlarini qiziqtiradigan masalalarga yechim izlab, ularni lo‘nda ifodalashga vosita bo‘ladigan rivoyatlarga murojaat qiladi. Natijada, davrning ijtimoiy-siyosiy vaziyatini aks ettiruvchi ajoyib romantik lavhadan yaratilib, ular asar to‘qimasi b-n qo‘shilib, bir butunlikni tashkil etadi. Asarning muqaddimasidayoq ulug‘ shoir ramziy bir shaklda yer yuzasida mubohasa etayotgan qushlar siymosida o‘zi yashayotgan jamiyat a’zolarining yuksak o‘rin egallashga bo‘lgan intilishlarini ifoda etadi. U jamiyat a’zolarining o‘z munosib o‘rinlarini topa bilmaganliklarini butun ijtimoiy noroziliklarning ilk sababi sifatida ko‘rsatadi:

Chun hunarvar uzra chiqti behunar,
Tozdin qoldi quyiroq tojvar.
Xayli ashrof ettilar zohir nizo’,
Qilmadi ul so‘zga arzol istimo’.

Tushti qushlar ichra g‘avg‘o har taraf,
Mojaro birla muhoko har taraf.

Bir-biridin o‘tmadi ul mojaro,
Har dam oshti mojaro ul xayl aro.

Gulshahriyning “Mantiq ut-tayr” asarida ko‘pincha din namoyandalarining vaziyati, turli xitoblari, shayx va shu kabi ruhoniylarning raftori muhokama etilsa, N.da jamiyatning hamma tabaqa va a’zolariga tegishli bo‘lgan axloqiy nasihatlar, ijtimoiy-siyosiy jihatdan ahamiyatga molik bo‘lgan masalalar asos qilib olinadi. Shoirning tamadan qochish, nafs ko‘yiga tushmaslik, o‘rinsiz zeb-u ziynatdan o‘zni yiroq tutish haqidagi mulohazalari Gulshahriy qarashlari b-n yaqinlashib ketsa-da, N. mehnat va sabrga chaqirish, himmat yo‘lini tutish haqidagi fikrlari b-n chandon ilgarilab ketadi. N. o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy vaziyati manzarasini berish, o‘quvchida zamondoshlari haqida tasavvur hosil etish borasidagi faoliyati b-n Gulshahriyga yaqinlashsa, asosan masalani keng va chuqur ishlashi, ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga molik muammolarga alohida diqqat-e’tibor b-n yondashuvi, jamiyat hayotidagi illatlarga isloh yo‘li orqali barham berish haqidagi qarashlariga ko‘ra mutaraqqiy mavqeda turadi. Dostonda shoirning mehnat va hunarning ahamiyati haqidagi qarashlari quyidagicha:

Gavhar o‘ldi himmat-u odam sadaf,
Bu sadafqa ul guhardindur sharaf.

Himmat o‘lsa masnad-u joh o‘lmasun,
Mulku mol onchaki dilxoh o‘lmasun.

Kimki yo‘qdur naqdidin piroyasi,
Bilki himmat basdurur sarmoyasi.

Kimsaga hech ishta gar yetmas ilik,
Pok yo‘q gar himmati bo‘lsa biyik.

Bularning hammasi N.ning an’anaviy mavzuda yozgan mazkur asarida originallilik yo‘lini tutganligi va o‘z g‘oyalarini badiiy ifoda etishda takrorlanmas mahorat ko‘rsata olganligiga dalildir. Zotan, “L.T.” da ilgari surilgan axloqiy-falsafiy masalalarining davr hayotida katta ahamiyat kasb etishi, shoir orzularining go‘zal ifodalanishi jihatidan o‘zidan bir asr ilgari yaratilgan Gulshahriy asaridangina emas, balki bu mavzu asosida yaratilgan boshqa dostonlardan ham farqlanib turadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Левенд О.С.. Гулшаҳрий. Мантиқ ут-тайр. – Анқара, 1967.; Арасли Ҳ. Гулшаҳрий ва Навоий // Адабий мерос. – Т., 1980. №3(15).*

S.O‘.

GUSTAHAM – “S.I.” dostonida xiroj to‘lashdan bosh tortgan Iskandarga qarshi kurashga otlangan Doroning o‘ziga qaram mamlakatlariga yuborgan da’vatiga ko‘ra Qutayf, Bahrayn va Bog‘doddan yordamga qo‘shin boshlab kelgan sarkardaning nomi.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т.,2011.*

A.A.

GUSHTOSP – ahamoniylar sulolasiga mansub tarixiy shaxs. Sharq tarixnavisligi an’anasida bu sulola kayoniylar deb yuritiladi. N. ham “T.M-.A.” asarida G.ni qadimgi Eronning kayoniylar sulolasiga mansub hukmdor sifatida zikr etadi.

Eroniynasab xalqlar adabiyotining qahramonlaridan biri. “Avesto”, “Gushtospnoma”, “Yodgori Zariron”, “Shohnoma” asarlari shular jumlasidandir. “Avesto” va forsiy adabiyotning qadimiy namunalarida Vishtosp shaklida uchraydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилди. 1. – Душанбе, 1988.*

S.O‘.

H

“HABIB US-SIYAR” – mashhur tarixchi Xondamir qalamiga mansub asar. 1521–1524-yy.da yozilgan. To‘liq nomi “Habib us-siyar fi axbor afrod al bashar”. Umumiy tarix yo‘nalishidagi asar bo‘lib, eng qadimgi davrlardan to XVI asrning birinchi choragiga qadar Xuroson, Iroq, Movarounnahr va Shimoliy Hindistonda yuz bergan voqealarni qamrab oladi. Uch jilddan iborat ushbu manbaning birinchi jildida o‘rta asr tarixnavislik an’anasiga muvofiq avvali ofarinish va payg‘ambarlar, Ajam shohlari, Muhammad (s.a.v) va xulofoyi roshidin haqida hikoya qilinadi. Asarning ikkinchi jildida arab xalifaligi tarixi yoritilgan. Ushbu jildda XIII asr o‘rtalarigacha hukmronlik qilgan sulolalar tarixi ham bayon etilgan. Uchinchi jildning asosiy qismida Chingiziylar va Temuriylar, ular hukmdorlik qilgan davr haqida ma’lumot beriladi. Bundan tashqari shoh Ismoil va Misrdagi mamluklar sulolasi tarixiga oid ma’lumotlar ham mavjud.

Xondamirning ushbu asari Sharq tarixnavisligining yorqin namunasi bo‘lishi b-n bir qatorda N. hayoti va faoliyatini o‘rganishda ham katta ahamiyat kasb etadi. Yoshlik paytida N.ning homiyligi va g‘amxo‘rligidan bahra olgan va tarixchi olim sifatida shakllangan Xondamir buyuk shoir va mutafakkir haqida alohida mehr va muhabbat b-n hikoya qiladi. Asarda N.ning Samarqanddan Husayn Boyqaro huzuriga kelishi, davlat arbobi sifatidagi faoliyatining boshlanishi, jumladan, Hirot shahrida yuz bergan xalq isyoni vaqtida poytaxtga jo‘natilgani, g‘alayonni tinchitish maqsadida ko‘rgan tadbirlari, Husayn Boyqaro b-n Yodgor mirzo o‘rtasidagi toj-taxt u-n kurashda va Yodgor mirzoning qo‘lga olinishidagi shaxsiy ishtiroki, uning muhrdor, so‘ngra esa devon amiri etib tayinlanishi va boshqa voqealar to‘g‘risida batafsil ma’lumotlar berilgan. “H.S.”da N.ning harbiy-siyosiy sohadagi faoliyati ham keng yoritilgan, jumladan, Husayn Boyqaroning Balxga, Qunduz va Hisorga qilgan yurishlarida qatnashgani, Hirotda mirzo Abulxayr isyonini bostirgani qayd etilgan. Majiddinning davlatdagi mavqeyining kuchayishi, N.ning Astrobodga yuborilishi, u yerdagi faoliyati, xususan, Iroq b-n munosabatlarni yaxshilagani, hokimlikdan iste’fo berib, Hirotga qaytishi, Darvesh Alibeknig isyoni, N.ning mamlakatda tinchlik va osoyishtalikni saqlash yo‘lidagi urinishlari, jumladan, Husayn Boyqaro va o‘g‘illari o‘rtasidagi nizolarni bartaraf qilishga qaratilgan sa’y-harakatlari – barchasi “H.S.”da o‘z aksini topgan. Asarning “Sulton hazratlari yaqin do‘stining (N.ning) foniy dunyodan abadiy saroyga ko‘chishi ... bayoni” degan faslida Xondamir N. hayotining so‘nggi kunlari haqida batafsil hikoya qiladi. N.ning Husayn Boyqaroni kutib olishga chiqishi va to‘satdan ahvoli yomonlashib, uchrashuv paytida hushidan ketgani, poytaxt Hirotga olib kelingani va bu yerda tabiblar uning hayotini saqlab qolishga uringanlari, shoirning vafoti va dafn marosimi, butun xalqning motam tutgani “H.S.”da o‘ta ta’sirli bir tarzda tasvirlab berilgan. Xondamirning bu ma’lumotlaridan n.shunos olimlar ulug‘ shoirning hayoti va faoliyatini yoritishga bag‘ishlangan tadqiqotlarida foydalanganlar va “H.S.” ular u-n eng ishonchli manbalardan biri bo‘lib xizmat qilgan. Xondamirning mazkur asari Eron va Hindistonda nashr etilgan. O‘zbekistonda uning bir qismi tarjima qilinib, 2011-y.da chop etildi.

Ad.: *Аҳмедов Б. “Хондамир”. – T., 1965; Ахмедов Б. “Историко-географическая литература Средней Азии XVI-XVIII веков (Письменные памятники)”. – T., 1986.*

Q.E.

HABIBIY (taxallusi; asl nomi Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li (1890, Andijon – 1980, Toshkent) – shoir, tarjimon. O‘zbekiston xalq shoiri (1974). O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi (1939). Bo‘lajak shoir boshlang‘ich ta’limni o‘z qishlog‘idagi eski usul maktabida oladi. Keyin Qo‘qon va Andijon madrasalarida tahsilini davom ettiradi. Yoshligidan adabiyotga qiziqqan. N., Fuzuliy, Muqimiy, Furqat kabi mumtoz shoirlar asarlarini sevib mutolaa qilgan. Ilk mashqlarini Muqimiyning do‘sti shoir Qori Zokir nazaridan o‘tkazgan. Mahjuriy, Sayfiy, Anisiy, Xurram, Ulfat kabi Andijon adabiy muhiti namoyandalari b-n tanishib, ular b-n ijodiy hamkorlik qiladi. 1920–1930-yy.da Andijon va Uchqo‘rg‘on shaharlarida savdo sohasida xizmat qiladi.

N.ning 500 yillik yubileyini o‘tkazish qo‘mitasi taklifi b-n Toshkentga ko‘chib kelgan va ulug‘ shoir adabiy merosini o‘rganish va nashrga tayyorlash ishlarida ishtirok etgan (1938–1941). N. asarlarining turli qo‘lyozmalarini qiyosiy o‘rganib, kotiblar tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatolarni tuzatish va shoir asarlarini joriy alifboga ko‘chirishga ko‘maklashgan. 2 jildlik “Navoiy asarlarining mukammal izohli lug‘ati”ni tuzishda qatnashgan.

Ikkinchi jahon urushi tufayli qo‘mita faoliyati to‘xtagach, Yangiyo‘l teatrida adabiy emakdosh bo‘lib ishlaydi (1941–1946).

H. mumtoz she’riyat an’analarini davom ettirib, aruzda ijod qilgan. G‘azal, murabba’, muxammas, musaddas, tuyuq kabi janrlardagi she’rlaridan tuzgan devoni bir necha marta chop etilgan. 300 dan ziyod she’rlari qo‘shiqqa aylanib, hofizlar repertuaridan o‘rin olgan. “Mehnat qo‘shiqlari” (1949), “Devon” (1971; 1975; 1980), “Diyorimsan” (2021) kabi kitoblari nashr etilgan.

H. N. ta’sirida g‘azallar yozgan, “Qomating”, “Muhtoj”, Subh”, “Talx”, “Sho‘x”, “Xos”, “Arz”, “G‘araz”, “Mahfuz”, “Tama”, “Bahs”, “Hanuz”, “O‘t” radifli g‘azallariga tatabbu’lar qilgan, shoirning “Kelgil, ey oromi jonimkim, tilaydur jon seni”, “Bir qadah may ichmadim sarvi gulandomim bila” misralari b-n boshlanadigan g‘azallariga taxmislar bog‘lagan. Sharq mumtoz so‘z san’ati ruhida tarbiya topgani, madrasa tahsilini olgani, Navoiy qo‘mitasida bevosita N. adabiy merosi ustida ish olib borgani H.ning buyuk salafi g‘azallari mazmun-mohiyatini teran anglab, ularga mahorat b-n taxmis bog‘lashida qo‘l kelgan. M-n:

To‘xtamay tepchib ko‘zimdin nam kamoli za’fdin,
Bo‘ldi jismim qatrayi shabnam kamoli za’fdin,
Benishon bo‘ldim chekim ko‘b g‘am kamoli za’fdin,
Sen pari pinhon uchun men ham kamoli za’fdin,
G‘oyib o‘ldum el ko‘zidin ko‘rgali pinhon seni.

H. tomonidan qo‘shilgan misralar ravon, jarangdor bo‘lib, baytda o‘z aksini topgan fikrni sharhlab, izohlab, to‘ldirib, ularning ma’no qirralarini ochib kelishini ko‘rish mumkin:

Ulfatim qayg‘u, qarindoshim alam,
holim yomon,
Bo‘lmadi bir yo‘l muyassar
vasli menga bir zamon,
Tashnalik haddan oshib,
daf’i xumon izlab qachon,
Har mayekim onsiz ichtim
topg‘ali g‘amdin amon,
Zahri g‘am go‘yo ezilmish
erdi ul jomim bila.

H. tatabbu’larida buyuk salafi g‘azallarining vazni, qofiya va radifini saqlab, zamonaviy mavzuda ohorli g‘azallar yaratadi. “Bahs” radifli g‘azali buning yorqin misolidir:

N.:

Ey ko‘ngul, gar aql etar man’i junun,
qilma jadal,
Ayb erurkim, ahli donish qilsa
nodon birla bahs.

H.:

Ahli donish so‘zlamas to o‘ylamay bir kimsaga,
Oqibat qilg‘ay xijolat qilsa nodon birla bahs.

N. va uning asarlariga bag‘ishlab, “Farhod”, “Ustoz”, “Shirindan Xisravga maktub” (N.ning “Farhod va Shirin”ini o‘qib) kabi she’rlar yozdi. Jumladan, “Ustoz” she’rida yozadi:

Zabardast olim-u ilm avjida topgan
maqom ustoz,
Suxan maydonida she’rim Alisher,
assalom, ustoz!

Yozilgan turli nazm-u nasr
ila devon-u dostoning,
Tabarruk saqlanur xalq ichra
bu shirin kalom, ustoz.
Xususan, bo‘ldi dasturilamal
“Mezon ul-avzon”ing,
Hama nazm ahli qilgay jon-u
dildan ehtirom, ustoz.

H.ning “Navoiy” nomli muxammasi kuyga solinib, ijro etilgan.

H. N.ning bir necha forsiy g‘azallarini tarjima qilgan. M-n, quyidagi g‘azal mujtassi musammani maxbuni maqtu’ vaznida yozilgan bo‘lib, H. uni ayni vaznning boshqa tarmog‘i – mujtassi musammani maxbuni mahzufda tarjima qiladi:

Zi nola ho- / li dili zo- / ri notavon / bishnav,
Suxan agar / nashavad zo- / hirat fig‘on / bishnav.

V – V – / V V – – / V – V – / – –
mafoilun / foilotun / mafoilun / fa’u(v)lun

Dilimki, no- / lada- n- ojiz / erur bayo- / ni- m- eshit,
So‘zim bilan / eshitilmas / esa fig‘o- / ni- m- eshit.
V – V – / V V – – / V – V – / V V –
mafoilun / foilotun / mafoilun / fauvlun

Toshkentdagi Kamolon qabristoniga dafn etilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Ҳабибий. Девон. – Т., 1971; 1975; 1980; Ҳабибий. Диёримсан. – Т., 2021.*

E.O.

HAVOSI XAMS (a) – besh sezgi: ko‘rish, eshitish, tatish, ushlash, hid bilish sezgilari. N. ijodida H.X.ga turli ijodiy maqsadlarda ko‘p murojaat qilingan. M-n:

Havosi xamsa bila maqsud bo‘lmadi mudrik,
Ko‘ngulni top iki-uch uzv, besh emas beshov.

Quyidagi baytda ma’shuqaning husn-u jamoli – ko‘zi, zulfi, yuz-u qaddini ko‘rgan oshiqning behush bo‘lishi besh hisning barbod bo‘lishi orqali tasvir etilgan:

Ko‘z-u zulf-u yuz-u qadding g‘amidin
Meni bexudqa barbod o‘ldi besh his.

Ad.: *Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2011; Жумаева С. Ўзбек муттоз шеъриятида рақам рамзлари ва уларнинг маъно талқини. – Т., 2010.*

S.J.

HADIS va NAVOIY – “Hadis” arabcha so‘z bo‘lib, yangilik, xabar, asar ma’nolarini anglatadi. Istilohiy ma’noda hadis deganda, Muhammald (s.a.v.)ga nisbat berilgan so‘z, fe’l, taqrir va xilqat – tana tuzilishi yoki xulqdagi sifat hamda siyrat – tarjimayi hollari tushuniladi. Aniqrog‘i, hadisda Rasulullоh (s.a.v.)ning so‘zlari va amallari, ko‘rsatmalari nazarda tutiladi. N. ham hadisga quyidagicha nazmiy izoh beradi:

Hamd angakim, kalomi xayrmaol,
Qildi elga rasulidin irsol.
Ul rasuleki, ham kalomi fasih
Elga tegurdi, ham hadisi sahih.

Rasulullоh (s.a.v.) hayotligida hadislar yozilmagan. Ammo keyinchalik turli maqsadlarda sahih hadislar barobarida soxta hadislar ham tarqala boshlangan. Shu sababli beshinchi roshid xalifa, deya tan olingan Umar ibn Abdulaziz davrida rasman hadis kitoblar yozilgan. Dastlab Ibn Shihob az-Zuhriy sodda tarzda hadis kitob ta'lif etdi va bu an'ana davom ettirildi. Hadislar yozish tobe'inlar tomonidan amalga oshirilgan. Sa'id ibn Musayyib, Ato ibn Abu Raboh, Qatoda, Tovus, Hasan Basriy, Ibn Shihob az-Zuhriy buyuk muhaddislar sanalgan. Ishonchli hadis kitoblari "kutubi sitta" nomi b-n jamlangan. Imom Buxoriyning "Jome' us-sahih", Imom Muslimning "Sahihi Muslim" hamda Imom Abu Dovud, Imom Termiziy, Imom Nasoiy, Ibn Mojalarning "Sunan" asarlari kutubi sitta tarkibiga to'plangan. Bu kitoblar ta'sirida boshqa ilmiy risolalar paydo bo'lgan. Buyuk tafsir kitoblari ham hadislar asosida yozilgan. Musulmon olami adiblari asarlari mazmun-mohiyatida ham islomning asl manbalariga tayanilgan. Sharq adabiyotida Hazrat Ali (r.a.) an'anasini davom ettirib "Arbain" nazmiy kitoblari yaratilgan. Jumladan, N. ham asosan, qudsiy hadislarga tayangan holda "Arbain" yozgan.

"G'.S." devoni debochisida N.: "Va durudi noma'dud ul anbiyo halqasining xotimig'akim, *"innash-she'ra lahikmatun va innal-bayona lasihrun" ("albatta, she'rda hikmat va bayonda sehr bor")* nuktasi bila shuaro poyasin hukamo martabasig'a chekti-yu bayon rutbasin sehr manzilasig'a tortti"), – deydi. Demak, shoir she'rni hikmat va bayonni sehrga aylantirishda Qur'oni Karim va hadisi sharifga asoslangan. N.ning "M.Q." asarida ulamolarga bir talabi borki, bu shoirning o'ziga ham tegishlidr: "Olim kerakkim, mutaqqiy bo'lsa va ogoh va ayturi qola Alloh va qola Rasulullоh.

Qit'a:

Har ne aytur bo'lsa Xudo-vu Rasuldin,
Andin so'ng o'lsa mujtahidu avliyo so'zi.
Andin kishi ne kim eshitur va yoki o'rganur
Bo'lsa Xudo so'zi, yo'q esa, Mustafo so'zi".

Ham tariqat, ham she'riyatda birday murshidi komil bo'lgan Abdurahmon Jomiy hazratlarining ham hadis ilmida tengsiz ekani ma'lum. N. ulug' pirining "Arbain"dan tashqari "Sharhi hadis" nomli diniy-irfoniy sharhnomasi borligidan "X.M" asarida xabar beradi. N. asarlarida hadislarning ko'p qo'llanishi va oliy san'atkorona ifodaga erishuvidagi omillaridan yana biri fors, arab, turk mumtoz asarlaridan xabardor bo'lganidir. Irfoniy asarlarda ko'p qo'llanadigan "*Men jin va insni o'zimga ibodat qilishlari uchun yaratdim (Zoriat: 51/56)", "Biz bu omonatni (chin bandalik omonatini) osmonlarga, yerga va tog'larga taklif etdik. Ular uni ko'tarishdan bosh tortdilar va undan qo'rqdilar. Inson esa uni o'z zimmasiga oldi. Darhaqiqat, u o'ziga zulm qiluvchi va nodondir (Ahzob: 33/72)", "Men yashirin bir xazina edim, bilinishni istadim va meni bilsinlar deya maxluqotni yaratdim", "Nafsini tanigan Robbini taniydi", "O'lmasdan burun o'ling", "Siz buyuk xulq ustida yaratildingiz", "Faqrlik faxrimdir", "Bir olimni hurmat qilgan meni hurmat qilgan kabidir", "Sahobalarim yulduzlar kabidirlar..."* singari oyat va hadislar bor. N. ham o'z asarlarida ularni darj etadi yoki isho-rat qiladi. M-n, "H.A." dostonida "Kuntu nabiyan va kaana adam baynal ruh va jasadun" hadisi asosida ruh jihatidan Muhammad (s.a.v.)ning ota ekanligini asoslaydi:

Bo'ldi sanga Odam sabqatnamo,
Avval o'g'ul, so'ngra gar o'lsa ato.

Naslida har kim anga payvand o'lub,
Borchasi farzandingga farzand o'lub.

Kimki munga da'viyi hujjat etar,
"Kuntu nabiyyan" anga hujjat yetar.

Ayniqsa, dostonlarning hamd va na’t boblaridagi ifodalarda hadislar ketma-ket keltiriladi. M-n, “L.T” dostonidagi 3-bobning ilk baytlari:

Anbiyo sarxayli sultoni rusul,
Kim erur oning tufayli juzvi kul.

Ulki Odamdin burun ul bor edi,
Ham Nabi ham sohibi asror edi.

Nuri mavjud ofarinishdin burun,
Kim edi xalqig‘a muddat olti kun, –

deya boshlanadi. Birinchi bayt *“Sen bo‘lmaganingda olamni yaratmasdim”* qudsiy hadisiga, ikkinchi bayt *“Odam Ato suv bilan tuproq orasida bo‘lgan paytdayoq men (Muhammad) payg‘ambar edim”,* uchinchi bayt esa *“Alloh taolo yaratgan ilk narsa – mening nurimdir”* hadisiga ishorat qilmoqda. Qolgan baytlar ham mana shu tarzda davom etadi.

N. asarning maqsadidan kelib chiqqan holda hadislar tanlaydi. Ba’zi hadislar turli asarlarda keladi va har xil ma’no qirralarini namoyon qiladi: “Ulki, *“kuntu nabiyyan va Odamu baynalmoyi vattin”* mazmuni anbiyoga muqaddamdur, *“rahmatan lil-olamin va xotamun nabiyyin”* mantuqi bila alarga muaxxar va xotamdur, habibi Hazrati Iloh Muhammad rasulullоh sallallohi alayhi vasallamdur... Buroqi inoyat aning markabi ulvi xiromi va Jibrili hidoyat aning payki barqgomi, laylat ul-me’roj aning shabistoni va *“li ma’ollohi vaqtun”* aning maqomi. “M.”idan olingan parchada *“Odam Ato suv bilan tuproq orasida bo‘lgan paytdayoq men (Muhammad) payg‘ambar edim”, “Butun olam va oxirgi payg‘ambar”, “Menda Alloh bilan birga shunday lahzalar bo‘ladiki”* uch hadisni keltirish b-n N. o‘z salovatini aytadi. Chunki hadislardan istifoda etishda N. turli usullardan foydalanadi. N. hadislarning ma’no-mazmuni va matnidan turli ma’naviy san’at va bayon vositalari yordamida o‘z she’rini ziynatlagan. Bu usul va vositalarni quyidagicha tasniflash mumkin: 1) hadis matnini aynan, to‘liq keltirish (iqtibos san’ati); 2) hadis matnidan muayyan qismini iqtibos qilish (iqtibos san’ati); 3) hadis matnini juz’iy o‘zgartirishlar orqali she’rning vazn va qofiyasiga moslashtirish (aqd san’ati); 4) islom tarixiga oid biror hadisga munosabat bildirish orqali she’rning badiiy-emotsionallik xususiyatini kuchaytirish (talmeh san’ati); 5) hadisni she’riy tarjima qilish; 6) dalil sifatida keltirilgan hadis mazmunini erkin tarjima qilish; 7) tazod, tashbeh, ishora san’atlari yordamida hadis ma’nosiga mos tushadigan g‘oyalarni bayon etish; 8) hadis ma’nosi asosida mustaqil syujet yaratish.

Hasanxon Yahyo Abdulmajid va Husaynxon Yahyo Abdulmajidning “Navoiydan chu topqaylar navoye” tadqiqotida “A.”, “S.M.”, “M.” asarlaridagi hadislarning roviylari va sanadlarini ham qo‘shib to‘ldirishgani, hadislarning sahih yoki zaifligini ham ko‘rsatishgani n.shunoslikdagi yutuqlardandir.

N.ning “N.M.” tazkirasi shoir lirikasi va dostonlaridagi irfoniy ma’nolarni anglashda muhim manbadir. Unda Abu Sulaymon Doroniy (q.r.) ning quyidagi iqrori keltiriladi: “ko‘pincha haqiqat (kashfu asror) qalbimda qirq kunlab uloqib yuradi. Ularni faqat ikki guvoh: oyat va hadis asosidagina qalbimdan joy olishiga ruxsat beraman”. Doroniy (q.r.)ning holi, mushohada sirri ham boshqalarga ibratdir. Asarda hadis ilmini egallash muhimligi xususidagi targ‘iblar ham mavjud: “Va Shayx Abulqosim debdurki, ul dediki, hadis bitimak kishidin jahlni eltur va darveshlik kibrni. “Agar ikkalasi jam’ bo‘lsa, shularning fazilati senga kifoya”.

N.ning umr so‘nggida yozilgan “M.Q.” asaridagi Xoliq, xalq, dunyo to‘g‘risidagi xulosalari hadislardan kelib chiqqan. Unda turli toifa odamlarning zikrida ham, hamida axloqqa erishish sir-asrori, usuli arkonini yoritishda ham, tanbehlarning mazmun-mohiyatida ham hadislar asosiy mezon vazifasini o‘tagan. M-n, Odil salotin shunday zikr etiladi: “Odil-u oqil podshoh ibodullohg‘a zillulloh. Xilofat mulki aning farmonida *“Inni joilun fil arz xalifatun” (“Men yerda (Odamni) xalifa qilmoqchiman” (Baqara. 1:30*) aning sha’nida. Bukim odil podshoh

rif'ati ta'rifdin biyikroq erur *"Vulidtu fi-zamonis-sulton ul-odil" ("Men odil sulton zamonida tug'ildim")* andin xabar berur. Ulki aning zoti bila mubohidur *xojayi kavnayn (ikki dunyo egasi, Muhammad payg'ambar s.a.v.)* debdurkim, *"Adlun soatun xayrun min ibodatis-saqalayn" ("Bir soatlik adolat, insu jin ibodatidan yaxshiroq")*. Ko'rinib turibdiki, N. har soha, har bir shaxsiyat haqidagi ta'rif-tavsifida oyat va hadislardan kelib chiqib yondashadi.

N. lirik merosida qit'a janrida hadislar yorqin ko'zga tashlanadi. *"Hadis mazmunikim...", "hadis tarjimasikim..."* sarlavhalari ostida qit'alar beriladi: "Hazrat nabaviy hadisi tarjimasidakim, "kun fid-dunyo kaanaka g'aribun av obiru sabilin"

Dedi hazrati mafxari koinot,
Anga kim edi huznin o'ksitguchi.
Ki dunyoda bo'lg'il nechukkim, g'arib
Va yoxud aningdekki, yo'l o'tkuchi".

Qit'ada N. muhrida naqshlangan *"Kun fid-dunyo kaannaka g'aribun av obirus-sabil (Bu dunyoda g'arib yoki yo'lovchidek bo'l)"* hadisi mazmuni yoritilgan.

N.ning shahzodalar ta'lim-tarbiyasiga ham katta e'tibor qaratgani ma'lum. Ularga maslahatlarida ham ta'sir doirasini kengaytirish va kuchaytirish maqsadida hadislardan unumli foydalanadi. "F.Sh." dostonining 53-bobi Shoh G'arib Mirzoga bag'ishlanadi. Uning xalq va mamlakat taqdiriga mas'ul shaxs sifatida fiqh, hadis va tafsir – diniy bilimlarni, shuningdek, hikmat va tarixni o'rganishini nasihat qiladi:

Birovkim qilsa olimlarg'a ta'zim,
Qilur go'yoki payg'ambarg'a ta'zim.

Hadis o'lmish nabiydin bo'yla hodis
Ki, olim keldi payg'ambarg'a voris.

Kishikim bo'lsa olam podshohi,
Aning ummatlig'idindur mubohi.

Birovkim ilm ila bo'ldi barumand,
Angakim voris o'ldi – bo'ldi farzand.

"Ulamo payg'ambarlar vorisidirlar" hadisiga hamohang o'git beradi shoir. N.ning hadis so'ziga alohida diqqat qaratganini "G'.S."ning 89-g'azali hamda "B.V."ning 91-g'azalida hadis so'zi radif vazifasini bajarganidan ham bilish mumkin. M-n:

Ulusni tutti Navoiy so'zi aning birla,
Magar Rasuli alayhis-salom qildi hadis.

N. mazkur baytlarda hadis so'zini ham lug'aviy, ham istilohiy ma'nolarda qo'llagan. Ayniqsa, quyidagi kabi baytlarda ko'ngil kalimasi ta'sirida hadis so'zining yanada ma'no bo'yoqlari ranginlashadi:

Do'stlar, ko'nglum hadisin demangiz Tengri uchun
Kim, men ul devonayi sargashtadin bezormen.

N.asarlarida faqr-u fano asosiy mavzulardan ekan, Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) nisbat berilgan "Al-faqru faxriy" ("Faqirlik mening faxrimdir") hadisiga ko'p o'rinlarda e'tibor qaratiladi. Ushbu hadisning sahihligiga ishtiboh b-n qarashlar bo'lgan. Ammo N. "Tuhfat ul-afkor"da yozadi:

Rah suyi Haq behad, ammo hast aqrab rohi faqr,
Bahri on-k"Al-faqr-u faxri"
guftayi payg'ambar ast.

Tarj.: Haqqa olib boradigan yo'llar behad ko'p, ammo faqr shu yo'llarning eng yaqinidir, chunki payg'ambar "Faqirlik mening faxrimdir" dedi.

Ayrim baytlarda hadislar aynan keltirilmay, ularga ishorat qilingan. M-n:

Poya mundin biyik o'lmaski, risolat xatmi,
Faqrning nisbatida faxrg'a qildi tasdiq.

Tasavvuf qo'llanmalarida ham, irfoniy-badiiy adabiyotda ham, so'fiyona she'riyatda ham tez-tez yodga olinuvchi "*Mutu qobla an tamutu"*, ya'ni "*O'lmasdan burun o'ling"* hadisi ham N. she'riyatida o'ziga xos ifodalarda beriladi. Jumladan:

Desang bu yo‘lda o‘lay, nafsni burun o‘ltur,
Ki ishq shar’ida go‘yo bu nav keldi qisas.–

Ma’lum bo‘lmoqdaki, N. asarlarida hadislarning mohiyati to‘g‘ri anglansa, mutafakkirning maslak matlabi, san’atkorligi teran ayon bo‘ladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Арбаин. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик. – Т., 2011. 10 жилдлик, 9-жилд; Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Ҳадис ва ҳаёт. 1-жилд. –Т., 2016. Абдулмажидов Ҳасан, Абдулмажидов Ҳусайн. Навоийдан чу топқайлар навое. – Т., 2014. Давлатов О. Алишер Навоий шеъриятида Қуръон оятлари ва ҳадисларнинг бадиий талқини. Дисс. – Т., 2017.*

Z.R.

HAYO (ar. uyat, sharm; or, nomus; kamtarlik, adab) – nojo‘ya, noma’qul xatti-harakatdan tiyilish hissi.

Ulug‘ ma’rifatparvar adiblarimizdan Abdulla Avloniy (1878–1934) “Turkiy Guliston yoxud axloq” nomli asarida H. haqida shunday so‘zlarni yozadi: “Hayo deb ishda, so‘zda adabni rioya qilmakni aytilur. Hayo dilni ravshan qiladurgan bir nurdurki, inson har vaqt shu ma’naviy nurning ziyosiga muhtojdir. Shariat buyurmagan, odamlar suymagan ishlarni ishlamak – g‘iybat, hajv, masxara, safsata, so‘kuv kabi odamlarning nafsiga, iffatiga tegadurgan adabsiz so‘zlarni so‘zlamak zo‘r hayosizlikdur. Iffatning pardasi, vijdonning niqobi hayodir”.

N. o‘zining, deyarli, barcha asarlarida H.ga o‘rin ajratgan. “Hayo iymondandir”, – degan hadis ham uning jamoat u-n naqadar zarurligini bildiradi. Diqqat qilinsa, N. asarlaridagi H. oddiy insoniylik nuqtayi nazaridagi sharm, or, nomusgina bo‘lmasdan yanada kengroq ma’nolarda qo‘llangan. Unda shoirning “men”i – lirik qahramoni, gunohlari u-n Allohdan H. qiladi. Ya’ni, inson Yaratgandan va odamlardan H. qilib, gunohlardan, fisq-u fasodlardan saqlansagina, Alloh va uning bandalari orasida sharmanda bo‘lmaydi, xijolatda qolmaydi.

Aylar esang fisq ila isyon anga,
Ayla agar bor esa pinhon anga.

Xalqdin ul ishda xijolat durur,
Xoliq agar ko‘rsa ne holat durur?

Ishdaki eldin sanga bor infiol,
Tengriga zohir esa, bo‘lg‘ay ne hol?

Istar esang maqsadi aslig‘a yuz,
Joddai shar’i Muhammadni tuz.

El orasida or-nomus, adab, iymon, to‘g‘rilik, H. singari go‘zal xulqlardan hayo va nomus ko‘proq xotin-qizlarda bo‘lishi shartdek qarash bor va ulardan shu narsalar talab qilinadi. Hazrat N. adabning komil bo‘lishi, bosh sharti H.dir, deydi va “N.Sh.”da yigitlarga sho‘xlik qanchalik yarashsa, odobi, H.si bo‘lsa, bu yanada xush holat bo‘lishiga urg‘u beradi:

Nechaki bo‘lsa yigitlikda sho‘xliq matlub,
Vale adab bila xushtur hayo yigitlarga.

Payg‘ambarimiz (s.a.v.) hadislarining birida iymonli inson u-n uch narsa: sabr, shukr va H. lozim, kimdaki shu uchalasi bo‘lsa, uni riyosiz va pok ko‘ngil deyish mumkinligini alohida ta’kidlab o‘tadilar. Diqqat qilinsa, H. ham iymonni mustahkamlaydigan xislatlardan biridir.

Bas ani inson atag‘il beriyo,
Kim ishidur sabr ila shukr-u hayo.

Bo‘yla buyurdi nabiyi Hoshimiy,
Kim bu uch imonning erur lozimi.

Bas ani inson demak o‘lg‘ay ravo,
Kim ishi imon bila topqay navo.

“L.T.”ning 9-bobida N. Payg‘ambarimizning eng sevikli sahobalaridan, choryorlarning uchinchisi Usmon (r.a.)ni H.da o‘xshashi yo‘q musulmon bo‘lganini misol qiladi:

Ul hayo koniki nurul-ayn edi,
O‘ylakim aynayn zun-nurayn edi.

Shundan keyin shoir Rasulullоh va uning safdoshlari b-n yuz bergan bir voqeani bayon etadi. Ma’lum bo‘lishicha, Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) bir kuni xilvat maskanda dam olib, suhbatlashib o‘tirarkan, bir oyoqlarini uzatib olgan edilar. Qabullariga kibor sahobalar, aziz va sharafli do‘stlari kirsa-da, holatlarini o‘zgartirmaydi. Ammo millatning sham’i – Usmon (r.a.) kirgach, undan H. qilib, uzatilgan oyoqlarini yig‘ishtirib oladilar.

Kim erur osru hayolig‘ kimsa ul,
Topqusi tag‘yir oning holig‘a yo‘l.

Aslida, “H.A.”ning 6-maqolot sarlavhasi ham kitobxonni befarq qoldirmaydi. *“... hayo ziyosidakim, har kishi kirsa rahmat yog‘inlari birla serob bo‘lur. (hayo nuri haqidakim, biron kishi buning ichiga kirsa rahmat yomg‘irlari bilan serob bo‘ladi”.) Yog‘in manbayi, uning bir qatrasi tuproqni kimyoga aylantiradi*”.

Mazkur tashbehning mohiyati shuki, N. yashagan vaqtlarda kimyo fani vositasida har qanday tosh yo ma’danni oltinga aylantirish haqida tasavvurlar mavjud edi. Bu tasavvurga suyangan N.da yog‘in manbayi hisoblangan hayoning bir qatrasi tuproqni kimyoga aylantirar ekan, undan bahra yetgan insonning kimyo kabi kuch-qudratga, hikmatga ega bo‘lishiga ishora bor.

N. H. va adab bor joyda, kulgu, masxarabozlik, mazallat – barisi mahv bo‘lib ketadi, deydi:

Muncha mazallat borisi bul’ajab,
Daf’ bo‘lur kelsa hayo-vu adab.

Ko‘zning H., sharm, nomus u-n yosh to‘kishi esa nihoyatda tahsinga loyiq ish bo‘lib, bulutlardan yomg‘ir yoqqandek to‘kilgan har qatra ko‘z yoshi – sof, toza dur kabi qimatlidir, deya kishilarni H.li bo‘lishga rag‘bat etadi:

Ko‘zki hayo ashki to‘kar chun sahob,
Qatrasining har biridur durri nob.

Shundan so‘ng shoir kishida H. bo‘lsa, uni nechog‘li sharaflantirishi to‘g‘risidagi shoh No‘shiravon haqidagi mo‘jaz hikoyat keltiradi.

N. o‘zining bolalikdan do‘sti, shoh va shoir Husayn Boyqaroni H. munosabati b-n tez-tez tilga oladi. “Ch.D.”dagi qasidasida uni shunday ta’riflaydi:

Ham hayoda ko‘rguzub aqli mujarrad paykarin,
Ham safoda anglatib ruhi mujassam suratin...
Tab’ing ollinda sahob andoq hayodin terlabon
Kim, hamul sudin yub o‘zdin durfishonlig‘ tuhmatin.

1-baytda aytilishicha, Husayn Mirzo H. bobida aqli mujarrad – sof, o‘tkir aql egasining qiyofasini hamda soflikda ruhning suratini ko‘rsatgan, tab’i nozikligi shu qadarki, undan hatto bulutlar H. qilib, terga tushib, o‘sha suvlari (terlari) b-n o‘zining dur sochuvchilik xususiyatini yo‘qotardi. Garchi shohning H.si bo‘rttirilgan bo‘lsa-da, kitobxon u-n ishonarli ham ta’sirchan.

“F.Sh.” dostonida ham H. fazilati juda ta’sirli yoritilgan. Malika Shirinning jamolini ilk marta ko‘rgan Farhodning aqli shoshib, uyat-hayo zo‘ridan o‘zidan ketib qolganda, uni quchog‘iga olgan Shopur tilidan shunday deyiladi:

Kamol-u fazl-u oyiningdin afsus,
Hayo-vu aql-u tamkiningdin afsus.

Shundan so‘ng Shirinning ko‘shkida uyg‘ongan Farhodni shoir shunday bir mehr va adab sohibi sifatida tasvir etadi:

Hayodin terga bo‘ldi abrdek g‘arq,
Ul uydin chiqti sekrib o‘ylakim barq...

Yetib oriqqa ko‘p aylab takuru,
Hayo teridin andoq oqizib suv.

Doston yakunida N. temuriy shahzodalarga ham nasihat qilar ekan, Sulton Husayn Mirzoning akasining o‘g‘li – Sulton Uvays Bahodir siyratini quyidagicha chizadi:

Zotida hayo bila adab ham
Ul nav'ki ammu xol-u ab ham.

Maz.:, zotidagi hayo va odob xuddi ammasi, xolasi, tog‘asi va otasiga o‘xshashdir.

Demak, temuriy shahzodaning aqrabolari axloqda ham namuna ko‘rsatib, og‘izga tushishgan. Shuningdek, “S.I.” dostonidagi Sulton Badiuzzamon haqidagi satrlar N.ning temuriylardan umidi katta bo‘lganini, ularning kamolotini vasf qilarkan, kelgusida yanada katta marralarga erishishlarini orzu qilganini bilib olish mumkin:

Xirad bog‘ining sarvi ozodasi,
Zamon ahlining shoh-u shahzodasi.

Hayo gulistonida abri mutir,
Adab osmonida mehri munir.

“S.I” dostonida Chin xoqoni hozirlagan ziyofatda o‘tirgan shoh Iskandar va uning sarkardalariga tanbeh berib, qadahdagi may insonning yuzidan H. pardasini ko‘tarishi mumkinligidan ogohlantiradi.

Qadah soldi ahbob mag‘zig‘a sho‘r,
Hijob-u hayo raf'i kelturdi zo‘r.

“M.N.”da esa N. zamondosh shoirlarga baho berar ekan, ulardagi yaxshi sifatlardan – H.ga alohida qiymat berib, insonning bezagi, komillikning muhim xususiyati, deb hisoblagan edi: “Mavlono Sayfiy hushyorlig‘da base odamivash va hayo va adablig‘ yigitdur; Mavlono Hamididdin adab va tavoze va ta'zim va hayosi mufrit va asr-u behad tushubtur”.

“M.Q.”da esa har toifa va hodisalarga o‘ta tanqidiy ruhda yondasharkan, o‘z davrining ijtimoiy-axloqiy masalalariga faollik b-n munosabat ko‘rsatib, ogohlantiruvchi fikrlar bayon etadi. Jumladan, tilanchi va gadolarning ko‘pi beg‘ayrat va behayo bo‘ladi, deydi.

H.ni adab, tavoze' b-n bir qatorda tasvir etgan bo‘lsa, Vafoning talabi, vafolining belgisi eng birinchi H.li ekanidir, deya qat'iyat ila tanbeh beradi, behayolardan shikoyat ham qiladi: *“Vafog‘a hayo bila payvastaliq, andoqki, hayog‘a vafo bila vobastaliq... Karam va muruvvat ota va onadurlar, vafo va hayo ikki hamzod farzand. Har necha ul ikovga nur bila safodur, bu ikavga ittisol bila payvand. Har ko‘ngulnikim, vafo maskan qilur, hayo ham qilur va har maskandakim, ul topilur, bu ham topilur”.*

N.ning “N.J.”asaridan ham uning H. haqidagi nodir fikrlari, qarashlari, o‘gitlari jamlanganini ruboiylar mutolaasi orqali ko‘rishimiz mumkin:

Hayo ul-mar'i satruhu:

Avji sharaf uzra oftob o‘ldi hayo,
Bo‘stoni saodatg‘a sahob o‘ldi hayo,
Mazmum xasoilga hijob o‘ldi hayo,
El aynig‘a go‘yoki niqob o‘ldi hayo.

Darhaqiqat, N.ning H. b-n bog‘liq fikrlari, badiiy matnlardagi hikmatlar, rivoyatlar bugungi kunda ham yosh avlodni tarbiyalashda muhim omillardan biridir. Zotan, uning odob va axloq masalasidagi ko‘rsatmalari va tavsiyalari insoniyatni hamisha yaxshilikka va yaxshi inson bo‘lishga boshlab kelgan va bugungi kunda ham yuksak ahamiyatga egadir. Mana shu jihatlardan ham N. insoniyat u-n nechog‘li ulkan xizmatlar qilganini, uning asarlari jahon xalqlari u-n nechog‘li mushtarak ahamiyatga ega ekanligini bilib olamiz.

Ad.: *Алишер Навоий. ТАТ. 10 жилдлик. 1-10-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. Матн, насрий баён, шарҳ, луғат. Шарҳ ва насрий баён муаллифи А.Малик. 2-китоб. – Т., 2021; Абдулла Авлоний. Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ”. – Т., 1992.*

S.R.

HAJV – N.ning adabiy-estetik qarashlari tizimida satirani bildiruvchi adabiyotshunoslik istilohi sifatida qo‘llanilgan. Aniq badiiy asarning mazmuni, uslubi, ruhi hamda undagi kulgining me'yori, o‘rni, vazifasiga ko‘ra satirik (“hajv”) va

yumoristik (“hazl”) asarlar sifatida farqlash kabi g‘oyat nozik masalada N. o‘z davriga nisbatan ilgarilab ketdi. “M.N.” tazkirasidagi qator dalillar shundan darak beradi. U, m-n, Jununiy to‘g‘risida shunday yozadi: “... nazmda tab’i hajv va hazl sori moyil erkandur. Xoja Xofiz Sharbatiy bila aning orasida nizo’ voqe’ va ul munozatni hajv qildi va xaloyiq ul hajvni yod tuttilar”.

N.ning satirik Abdulvose’ haqidagi mana bu ma’lumoti ham o‘sha davrdagi H.ning ancha rivojlanganini ko‘rsatadi: “Derlarki, aning (Majdiddin nazarda tutiladi.) uchun besh yuz baytdan ortuq” hajv bor va soyir xalq uchun ming baytdin ortuq”. Bu ta’kidlar, ayni zamonda, davr adabiyotida ijtimoiy satiradan ko‘ra shaxsiy xarakterdagi satiraning ustunlik qilishini ham ko‘rsatadi.

N. “M.Q.”da shaxsiy satiraning yuzaga kelish jarayonini quyidagi hayotiy misol orqali juda qisqa, ammo ishonarli chizib bergan:

“Dushman g‘ururidin g‘am yema va maddoh xushomadin chin demakim, oning g‘arazi o‘z maqsudig‘a komdur va muning maqsudi sendin muhaqqar in’om. Agar ikkalasiga iltifot qilmasang va qadulin lozim bilmasang – ul o‘z qasdi ijrosidin muattal va tadbiri muhmol bo‘lur va munung madhi hajviyag‘a mubaddal bo‘lur. Masnaviy:

Birisig‘a g‘araz o‘z muddaosi,
Birisi qasdi in’om iltimosi.

Chu sendin topmadilar hech parvo,
Biri xasmu biridur hajv aro”.

Bu parchada, ayni zamonda, H. madhning ziddi sifatida shakllanishi ta’kidlanadiki, bu muhim nuqta N.ning H. haqidagi qarashlarga ravshanlik kiritadi.

N. “M.N.” tazkirasida Darvesh Mashhadiy haqida shunday yozadi: “Ba’zi azizlarni, derlarki, yomon hajvlar qilibdur” Andin ajab ermasdur va tab’i sori har necha desa yaxshi borur”. Xoja Ahmad Mujallid hajviyalari ham xuddi shunday xarakterda: “Mutaayyin eldin oz qolmish bo‘lg‘aykim, ul nazm yo muammo bila hajv yo hazl qilmag‘ay”.

Ba’zi aniq holatlarda “hajv” istiloh sifatida salbiy mazmunni ifodalovchi so‘z-obraz vazifasida keladi. M-n: “Badoye’ ul-vasat” devonida o‘rin olgan g‘azallarning birida xuddi shunday:

Ista yirtuq janda kiygonlarda ma’ni maxzanin
Kim bu yanglig‘ ganj o‘lur ul nav’ vayronlar aro.

Atlas-u zarbaft aro nodon-aningdek hashv erur
Kim xatoye safhada sabt o‘ldi afshonlar aro.

Shoir birinchi baytdagi chuqur xalqchil g‘oyani dalillash maqsadida ikkinchi baytda: atlas-u tilla iplar b-n to‘qilgan go‘zal kiyimlarga burkangan nodon xuddi oltin suvini purkab bezatilgan sahifadagi qo‘pol xato kabi H.dir, deb ta’kidlaydi. Bunda H. “masxara, sharmanda, xunuk, mantiqsiz” kabi salbiy ma’nolarni o‘zida jamlaydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; А.Абдуғафуров. Навоий сатираси. “Фан”. – Т., 1966.*

A.A.

HAZAJ (ar. – ovozni yoqimli qilish) – mafoiylun (bir qisqa, 3 cho‘ziq hijo – V – – –) aslining takroridan hosil bo‘lgan bahr (V – – – / V – – – / V – – – / V – – – – mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun). Bu bahr ham aruzning turkiy vaznlaridan biri bo‘lib, turkiy she’riyatda keng tarqalganligi jihatidan ramaldan keyin 2-o‘rinda turadi. Ramal bahridan farqli o‘laroq, H.ning zihoflari emas, balki solim shakllari, jumladan, hazaji musammani solim she’riyatimizda keng qo‘llanilgan.

H. rang-barang ohang xususiyatlariga ega ko‘plab vaznlarni o‘z ichiga olib, ular orasida teran falsafiy mushohadalarni, mahzun tuyg‘u-kechinmalarni ifodalaydigan salobatli, vazmin vaznlar ham, sho‘x va quvnoq kayfiyat ifodasiga mos yengil va o‘ynoqi vaznlar ham mavjud. XIV asr boshlaridan bu bahr vaznlari asosida lirik va liro-epik dostonlar ham yaratilib, uning imkoni-

yat doirasi kengayib borgan. N. ijodida ham H. bahri keng qo‘llangan – “X.M.”dagi 3132 she’rdan 669 tasi, 2600 g‘azalning 420 tasi (16,5 foizi) H. bahrining turli vaznlarida yaratilgan.

N. “M.A.”da H. bahriga mansub 46 ta vaznni sanab, ularning har biriga misollar keltiradi. Bobur esa “Muxtasar”da 105 ta vazn haqida ma’lumot beradi. Mumtoz va xalq kuylariga mosligi jihatidan “Shashmaqom”dagi 63 ta kuy H. bahri vaznlaridagi kuylarga bastalangan. O‘zbek she’riyatida H. bahrining 30 dan ziyod vaznidan keng foydalaniladi. M., Sakkokiy qalamiga mansub 56 she’ridan 24 tasi, Lutfiyning 430 she’ridan 141 tasi, Hofiz Xorazmiyning 1404 she’ridan 306 tasi, N.ning “X.M.”dagi 3132 she’ridan 669 tasi H.ning turli vaznlarida yozilgan. “F.Sh.”, “L.M.” dostonlari ham H.ning 6 ruknli musaddas vaznlarida yaratilgan. O‘zbek she’riyatida H. bahrining asosan 8 va 6 ruknli vaznlari keng qo‘llanadi. M-n, N.ning mashhur:

Meni men istagan o‘z suhbatig‘a
arjumand etmas,
Meni istar kishining suhbatin
ko‘nglum pisand etmas, –

matla’si b-n boshlanadigan g‘azali ham hazaji musammani solim vaznida.

Ma’lumki, ruboiy ham H. bahri axram va axrab tarmog‘idan hosil bo‘lgan 24 vaznda yoziladi. N.ning turli asarlari tarkibida kelgan 700 ga yaqin ruboiyning barchasi ayni vaznlarda yaratilgan. Ma’lumki, bir ruboiy doirasida bir necha vaznlar o‘zaro o‘rin almashib kelishi mumkin. M-n, quyidagi mashhur ruboiyning 1-, 2- va 4-misralari hazaji musammani axrabi maqbuzi makfufi majbub (maf’uvlu mafoilun mafoiylu faal – – – V / V – V – / V – – V V –), 3-misrasi esa hazaji musammani axrabi maqbuzi solimi abtar (maf’uvlu mafoilun mafoiylun fa’ – – – V \ V – V – \ V – – – \ –) vaznida yozilgan:

G‘urbatda g‘arib shodmon bo‘lmas emish,
El anga shafiq-u mehribon bo‘lmas emish.
Oltin qafas ichra gar qizil gul butsa,
Bulbulg‘a tikandek oshyon bo‘lmas emish.

Ad.: *Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. ТАТ. 10-жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Бобур. Мухтасар. – Т., 1971; Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т., 1998; Ҳожиаҳмедов А. Навоий арузи нафосати. – Т., 2006; Юсупова Д. Аруз ва мумтоз поэтикага кириш. – Т., 2020.*

E.O.

HAZL – o‘z lug‘aviy ma’nolaridan tashqari, N.ning adabiy-estetik qarashlari tizimida yumor (yumoristik asar)ni ifodalovchi adabiyotshunoslik istilohi sifatida ham keladi.

“M.N.” tazkirasidagi Jununiy (“Ammo nazmda tabbi hajv va hazl sori moyil erkindur”), Hoji Nujumiy (“tab’i hazlg‘a moyil erdi va hazlomez qit’alari bor”), muzhir (hazlomez ash’ori va qit’alari ko‘p durur va mashhur”) Xoja Xond (“tab’i ham nazm sori ham hazl sori maydi bor”) va Shahidiy (“badi hasi ravondur va tab’i hazlg‘a ko‘p rog‘ibdur”) kabi ijodkorlarga bergan tavsiflarida N. hazlni yumor, yumoristik asarni ifodalovchi istiloh kabi qo‘llaydi. Xoja Ahmadga bergan tavsifida esa “Mutaayyirin esa oz qolmish bo‘lg‘aykim ul nazm yo hazl qilmag‘ay”, – deb ta’kidlaydi va “bu muammo oning hazillaridindur” izhor b-n bir namuna keltiradi.

“G‘.S.”dan o‘rin olgan bir g‘azalda N. H.ni musiqiy asarga – kulgili, sho‘x, o‘ynoqi kuyga nisbatan ishlatadi:

Mungaldi ko‘nglum oningdekki, hazl nag‘masidin
Ki, elga kulgu etar-oshkor yig‘larmen.

“H.A.”da N. “hazl kitobi” iborasini ishlatar ekan, kulgining me’yori, uning mantiqan asoslangan, mazmun b-n mutanosib bo‘lishi shartligiga ishora qiladi, yuzaki, zo‘rma-zo‘raki, bachkana H.ni qoralaydi:

Hazl kitobi kibi xattida zeb,
Ma’ni anga fahsh-u fusun-u fireb.

“Hazl” N.ning ulkan ijodiy merosida o‘z lug‘aviy ma’nosida va aksariyat turli tovlanish

va nozik tafovutlar b-n ko‘p uchraydi. Quyidagi namunalar bu so‘zning qator ma’naviy qirralarini yaqqol namoyish etadi:

“Hazlg‘a shuru’din behurmatlig‘ – o‘q ortar va hazlning nihoyati jadolg‘a tortar”, – deb yozadi shoir “M.Q.”da. Bu tanbih xalq oarsida hanuzgacha faol iste’molda bo‘lgan, “hazl-hazlning osti zil” iborasini esga soladi. “G‘.S.”dagi mana bu baytda ham H. bachkana xatti-harakat, behayo maynavozchilik va aljirash ma’nolarida keladi:

Ey Navoiy, shayxni shayton gar afsor urmadi,
Bas, nega doim qilur hazl ul uzun fashlig‘ bila?!

“L.T.” dostonidagi mana bu baytda esa “hazlchin” (“bilsa hazl, bilmasa-chin”) tazodi ishtirok etgan:

O‘zni shohi kishvaroyin sog‘inib,
Har ne qilsa hazl ila chin sog‘inib.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Абдуғафуров А. Н. сатираси. – Т., 1966.*

A.A.

“HAZRAT NAVOIY VA ZIYRAK SAMIRA” – Bolalar yozuvchisi Mirzajon Islomovning maktab yoshidagi bolalar u-n mo‘ljallangan dostoni (Toshkent: Sharq, 2014. – 272 bet). Kitob kirill hamda joriy lotin alifbosida nashr etilgan bo‘lib, akad. Aziz Qayumovning so‘zboshisi b-n boshlangan. So‘ngra muallifning ushbu dostonning yozishdan ko‘zlagan ezgu maqsadi va dostonning yaratilishiga sabab bo‘lgan ba’zi mulohazalari bayoni ham berilgan. Jumladan, 1949-y.da Mirzajon hali 6-sinfda o‘qir ekan, maktabda adabiyot o‘qituvchisi va N. surati b-n bog‘liq ta’sirli voqea o‘rin olgan.

Doston ijodkorning nabira qizi Samiraning Navoiy bobo haqida maktabda ustozidan ko‘p narsalar o‘rganayotganini, shu b-n birga, bobosi – muallifdan ham ulug‘ shoir haqida saboq berishini so‘rash voqeasi b-n boshlanadi. Hikoyachi-muallif N.ning turkiy she’riyat gulshanining bog‘boni ekanligi, bu nazm bog‘idan nabirasi ham gullar tersa, kelgusida maqsadlariga erishishida mustahkam ilm xazinasiga ega bo‘lishi haqida so‘zlaydi. Shu tariqa bobo va nabiraning suhbatiga N.ning o‘zlari kelib qo‘shiladilar. Ziyrak Samira bobosining o‘gitlariga amal qilib, shoirdan birin-sirin savollar beradi. O‘zining tirishqoq bolaligi, bilimga chanqoq o‘tgan o‘smirligi haqida so‘zlab bergan shoir suhbatning davomida mashaqqatli yoshlik yillari, ilm egallash yo‘lidagi zahmatlari, ijodga kirib kelishi, ustozlari, do‘stlari, yozgan she’r va dostonlari haqida Samiraga tushunarli tilda zavq b-n bergan javoblari nazm yo‘li b-n ifoda etilgan.

Ajabdan ajab ish “Xamsa” yaratmoq,
Jiddiy fikrlarni unga qaratmoq.

“Xamsa” besh asarning uyi-makoni,
“Hayrat ul-abror” ilk makon dostoni.

Dostonim oltmish to‘rt bobdan iborat,
Biri biriga ul birodar, ibrat.

Tangriga maqtovlar ilk o‘n bir bobi,
Ibodat bilan inson odobi...

Nizomiyu Amir Xisrav xizmatin,
O‘n ikkinchi bobda aytdim himmatin...

Tabiiyki, buyuk shoirning hayoti va ijod yo‘li b-n yaqindan tanishgan bolalar o‘z-o‘zidan u kishini yaxshi ko‘rib qoladilar va boy ijodlarini o‘rganishga kirishadilar. Bir so‘z b-n aytganda, qiziqish maqsadga yetaklaydi. Muallifning orzu-maqsadi ham shu.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-жилдлар. – Т., 2011; Исломов М. Ҳазрат Навоий ва зийрак Самира. – Т., 2014.*

S.O‘.

HAYDAR IBN HUSAYN – shahzoda Haydar Mirzo, sulton Husayn Boyqaroning Poyanda Sultonbegimdan tug‘ilgan farzandi. “Boburnoma”da ko‘rsatilishicha, u Mashhad, Balx va Badaxshonda bir qancha vaqt hukmronlik qilgan. N. “S”da shahzoda yetuk axloqli, taqvodor, shariat qonun-qoidalariga sobit kishi sifatida ulug‘langan. Shuningdek, shoir uning go‘zal fazilatlari, barcha ishlari ko‘ngilga xush yoqishini aytib, bunday ta’riflagan:

Ulki Haydar otidur, xulqi hasan,
Har nekim qilsa, bari mustahsan.

Haydar ismi orqali talmeh va iyhom san’atlari hosil qilinib, hazrat Aliga ham ishora qilinadiki, banddagi “Boqibon qubbatul islom sari”, “To abad hashamatidin topsun kom, Mulki islomda ahli islom” misralari ham bundan dalolat beradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 2002; Асадов М. Соқийнома: тарих ва поэтика. – Т., 2020.*

M.A.

HAYDAR SABUHIY (XV asr o‘rtalari − Hirot − 1498) − shoir. N.ning eng katta jiyani, tog‘asi Mir Said Kobuliyning o‘g‘li. Toj-u taxt u-n kurashda Husayn Boyqaro tomonida turib urushgani sababli Abusaid Mirzo otasini tutib qatl ettirgach, uning tarbiyasi b-n N. shug‘ullanadi, u buyuk shoirga farzand maqomida bo‘lgan. Sabuhiy taxallusi b-n she’rlar yozgan. Bu so‘z tasavvufiy ma’noda poklik, haqiqat nuri ma’nosini bildiradi. “M.N.” tazkirasida berilgan ma’lumotga ko‘ra, u nozik shoirona qalbga ega bo‘lib, kamolot kasb etish u-n so‘fiyona riyozat bosqichlarini bosib o‘tgan. Yoshligidan to balog‘atga yetguncha ilm tahsili b-n mashg‘ul bo‘lgan, she’r yozish va muammo aytishda alohida iste’dodi borligini namoyish qilgan. Sipohiylikda ham o‘zini ko‘rsatib, xususan, o‘q otish va qilich chopishda mohir bo‘lgan. Lekin bir oz devonatabiatli ekanligi sababli xalq orasida “Haydari telba” nomi b-n dong taratgan. N. ko‘pincha uni yonida olib yurgan. Astrobodda ham u N.ning xos mulozimlaridan bo‘lgan. U jiyanini davlatni boshqarish ishlariga tayyorlab, hatto unga Astrobod hokimligini topshirish niyatida bo‘lganligi haqida aytiladi. N. uni ba’zi rasmiy topshiriqlar b-n Hirotga yuborganida, bir davrada N.ga suiqasd qilingani, oshpaz unga zahar qo‘shilgan taom bermoqchi bo‘lgani, bundan xabar topgan shoir g‘azabga minib, Husayn Boyqaroga qarshi isyon ko‘tarmoqchi ekanligini aytadi. Bu gap Hirotda ovoza bo‘lib ketadi. Husayn Boyqaro darhol N.ga maktub yo‘llab, bu ishdan mutlaqo xabari yo‘qligini ma’lum qiladi. Shu voqeadan keyin Husayn Boyqaro N.ning Hirotga qaytishiga ruxsat beradi. N. o‘z javobida bu gapni rad etadi va jiyanining xatosini kechirishini iltimos qiladi (“M”, 52-maktub). Husayn Boyqaro garchi kechirganligini aytib, do‘stini xotirjam qilsa-da, o‘z xonadoni sha’niga qilingan bu tuhmatni unutmaydi. H.S. barcha xizmatlardan chetlatiladi. U Badaxshonga ketib, bir necha yil o‘sha yerda xizmat qiladi. 1498-y. da Badaxshondan Hirotga elchi bo‘lib kelganida, Husayn Boyqaro uni tutib, qatl ettiradi.

H.S. she’rlarining taqdiri ma’lum emas. “M.N.”da N. uning quyidagi baytini misol tariqasida keltiradi:

May ast la’li tu yo shahdi nob: az in du kadom ast?
Xay ast bar ruhi tu yo gulob: az in du kalom ast?

Tarj.: La’li labing maymi yo toza asalmi − bu ikkisidan qaysi biri? Yuzingdagi termi yo gulobmi: bu ikkisidan qaysi biri?

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar xazinasida 7379-inv. raqami b-n saqlanayotgan Feruz farmoni b-n 1318-hijriy yilda ko‘chirilgan bayozning 73-varag‘ida, 1117-inv. raqami b-n saqlanayotgan bayozning 80-varag‘ida H.S.ning 7 baytli quyidagi g‘azali keltirilgan:

Omadan so‘yi manu az roh gardidan charost?
Ro‘y gardonidanu so‘yi digar didan charost?

Dar kushodan jonibu ag‘yor-u didan har zamon,
Chun maro didan zi ro‘yi mehr ko‘shidan charost?

Jonibi man har nafas sangi digar andoxtan,
Az g‘azab dashnom kardan, tund gardidan charost?

Chun maro didi, nishasti, dar daruni xona chist?
Manki raftam, omadan, berun xiromidan charost?

Gar namekard davlati shod az g‘am-u anduhi man,
Giryayi man didanu har lahza xandidan charost?

Meshavad ma’sum, k-az man xotirat ranjida ast,
Begunah az oshiqi dilxasta ranjidan charost?

Gar Sabuhiro ba dil mehri mahi ro‘yi tu nest,
Ro‘z-u shab bo giryayi jonso‘z nolidan charost?

Tarj.: Men sari kela turib yo‘ldan qaytish, yuz o‘girib, birov sari qarash nega? Raqiblarga eshik ochib, ularni har zamon ko‘rar ekan, meni ko‘rish uchun mehr bilan intilish nega? Menga tomonga har nafas bir o‘zga tosh otib, g‘azab bilan tanbeh berish-u qahr etish nega? Meni ko‘rganda uydan chiqmay o‘tirish-u men ketgandan keyin kelib tashqarida yurish nega? Agarda mening g‘am-u anduhimdan shod bo‘lmasa, mening yig‘laganimni ko‘rib har nafas kulish nega? Ko‘ngling mendan ozurda bo‘lsa, pok bo‘ladi, yuragi jarohatli begunoh oshiqdan xafa bo‘lish nega? Agar Sabuhiyning ko‘nglida sening oy kabi yuzing ishqi bo‘lmasa, kecha-kunduz jonni o‘rtaydigan yig‘i bilan faryod qilish nega?

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Шарафиддинов О. Алишер Навоий. – Т., 1971; Ғаниева С. Алишер Навоий. – Т., 1962; Абдуқодиров А. Амир Алишер Навоий. – Хўжанд, 2003; Очилов Э. Ҳайдар Сабуҳий //Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 11-жилд. – Т., 2005.*

E.O.

HAYDAR XORAZMIY (XIV asr oxiri – Xorazm – XV asr 1-yarmi) – shoir. U haqda ba’zi tazkiralardagina ayrim ma’lumotlar saqlanib qolgan. M-n, N. “M.L.” asarida uni Sakkokiy, Atoiy, Muqimiy, Yaqiniy, Amiriy va Gadoiy kabi “xushta’b” shoirlar qatorida sanab o‘tsa, “M.N.” tazkirasida – temuriy shahzodalarga bag‘ishlangan 7-majlisda Sulton Iskandar Sheroziy (Umarshayxning o‘g‘li.) zikrida H.X.ni ham tilga oladi: “Mavlono Haydar turkigo‘y aning modihi ekandur. Bu aning masnaviysidurkim:

Himmat elidur yadi bayzo degan,
Er nafasidur dami Iso degan”.

Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro”sida temuriylardan Iskandar Mirzo zamonida yetishib chiqqan olim va adiblar xususida fikr yuritar ekan: “Fuzalo va shu-arodan Mavlono Haydar edikim, turkiy va forsiyda nafis va yoqimli she’rlari bor va Shayx Nizomiyning “Maxzan ul-asror”iga javob bitib, uni amirzoda Iskandarga bag‘ishlagan”, degan ma’lumotlar mavjud.

H.X.ning lirik merosi saqlanib qolmagan, bizga qadar uning faqat ulug‘ ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy “Xamsa”sining 1-dostoni “Maxzan ul-asror” (“Sirlar xazinasi”)ga nazira tarzida yozilgan “Gulshan ul-asror” (“Sirlar gulshani”) dostoni yetib kelgan. Shayx Ahmad Taroziyning 1436–1437-yy.da o‘zbek tilida yozilgan “Funun ul-balog‘a” (“Yetuklik ilmlari”) nomli adabiyotshunoslikka oid asaridan ma’lum bo‘lishicha, biz shu paytgacha Lutfiyga nisbat berib kelganimiz “Gul va Navro‘z” dostoni aslida H.X.ga tegishli ekan. U o‘z asarida “Mavlono Haydar aytur” deb dostondan bir necha marta misol keltiradi. Zahriddin Muhammad Bobur ham “Muxtasar” risolasida bu asarni H.X.ga nisbat bergani ma’lum. Faxriy Hiraviy ham sultonlarga bag‘ishlangan tazkirasida Haydar Xorazmiy Iskandar Sheroziyning saroy shoiri bo‘lib, “Maxzan ul-asror” va “Gul va Navro‘z” dostonlarini uning homiyligida yozib, o‘z valine’matiga bag‘ishlagani, har ikkala doston ham badiiy jihatdan baland ekanligi haqida ma’lumot beradi. Ba’zi manbalarda uning yana “Me’rojnoma” dostoni ham bo‘lganligi aytiladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Ҳайдар Хоразмий. Гулшани роз // Муборак мактублар. – Т., 1987; Давлатшоҳ Самарқандий. Тазкират уш-шуаро. – Хужанд, 2015; Фахрий Ҳиравий. Равзат ус-салотин. Жавоҳир ул-ажойиб. – Т., 2014; Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т., 1976; Ўзбек адабиёти тарихи. 5 жилдлик, 1-жилд. – Т., 1977; Ғаниева С. Навоий насри нафосати. – Т., 2000; Муниса Содот. Яна "Гул ва Наврўз" достони ҳақида // "Ўзбек тили ва адабиёти", 2020, 3-сон.*

E.Q.

HAYITMETOV, Abduqodir Hojimetovich (1926, Farg‘ona – 2005, Toshkent) yirik adabiyotshunos olim, f.f. d-ri (1965), prof. (1970), O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi (1978). 1949-y.da O‘rta Osiyo Davlat universiteti Sharq fakultetining Eron-afg‘on filologiyasi bo‘limini tugallaydi. 1949–1952-yy.da O‘zR FA Sharq qo‘lyozmalari (hozirgi Sharqshunoslik instituti aspiranturasida o‘qiydi. 1955-y.da "Alisher Navoiyning ilmiy-tanqidiy qarashlari" mavzusida nomzodlik, 1965-y. "Navoiy ijodiy metodi" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qiladi.

H.A.H. 1953-y.dan boshlab O‘zR FA Til va adabiyot instituti (hozirgi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti)da kichik ilmiy xodim (1957-y.gacha), katta imiy xodim (1957–1967), institut direktorining ilmiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari (1967–1971) lavozimlarida, 1967-y.dan boshlab esa shu institutning O‘zbek adabiyoti tarixi bo‘limi mudiri vazifasida ishlagan.

H.A.H.ning dastlabki monografiyasi "Alisher Navoiyning adabiy-tanqidiy qarashlari" (1959) o‘zbek adabiyotshunoslik va adabiy tanqidchiligining tarixini yoritishda birinchi jiddiy qadam bo‘ldi.

"Navoiy lirikasi" (1961)da tanlangan ilmiy yo‘l – shoir she’riyatining g‘oyaviy mundarija va badiiy timsollar tizimini aniqlash, baholash mezoni, tahlildagi qilingan xulosalar H.A.H.ga keng olimlik shuhratini keltirdi.

H.A.H."Navoiyning ijodiy metodi masalalari" monografiyasida hamda "Navoiyning ijodiy metodi" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida N.ning ijodiy uslubini tadqiq etadi.

H.A.H. N. haqidagi yuzdan ortiq maqolalar muallifi. Bu maqolalarning bir guruhi shoir ijodiyotining nazariy masalalari ("Navoiy estetikasining yuksak bosqichi", "O‘zbek adabiyotida realistik prinsiplar qaror topishida Alisher Navoiyning roli", "Alisher Navoiyning badiiy-poetik uslubi yuzasidan mulohazalar", "An’anaviy poetika va Navoiy" va boshqalar), yana bir qismi uning epik va lirik she’riyatining manbalari, g‘oyaviy-badiiy asarlarini tekshirishga bag‘ishlangan.

N.ning sarbadorlarga munosabati, N.ning forsiy maktublari, Alanquvo afsonasi N. talqinida, N.da tahrir masalasi, N. va tabiiy fanlar, matnshunoslik muammolari, N. "X"sida ijtimoiy tip talqini, N. va fantastika, N. lirikasi va dostonlarining yozilish tarixi, hayotiy xususiyatlari va h.k.larga oid salmoqli maqolalari respublika gazeta va jurnallarida hamda "Navoiy dahosi" (1970), "Hayotbaxsh chashma" (1974), "Tabarruk izlar izidan" (1979), "Meros va ixlos" (1985) nomli to‘plamlarida e’lon qilingan.

H.A.H.ning 1972-y.i Afg‘onistonda ilmiy safarda bo‘lishi uning N. hayoti va ijodi haqida bir qancha yangi maqolalar yozishiga sababchi bo‘ldi.

H.A.H.ning Lutfiy, Amiriy, Haydar Xorazmiy, Bobur, Turdiy, Mashrab, Munis, Muqimiy, Furqat, Avaz va boshqa ijodkorlar haqidagi qator maqolalari ham o‘zbek adabiyotshunosligini boyitdi. Bu turkum tadqiqotlarda H.A. o‘zbek adabiyotining hamma davrlariga N. ijodiyotining muayyan ta’sirini ko‘rsatib berishga intildi.

H.A.H.ning ilmiy rahbarlik va tashkilotchilik faoliyati besh jildlik "O‘zbek adabiyoti tarixi" (1977-1980) va rus tilida e’lon qilingan ikki tom-

lik “История узбекской литературы” (1987, 1989)larning yuzaga kelishida yorqin namoyon bo‘ladi. H.A. bularda ham tadqiqotchi-muallif sifatida faol qatnashdi, ham barcha mavzularga bosh ilmiy rahbarlikni o‘tadi.

H.A.H. badiiy ijodda ham qator asarlar yaratdi. Uning bir necha hikoyalari, she’rlari va tarjimalari nashr etilgan va ssenariylari asosida “Abdurahmon Jomiy”, “Navoiy hayoti”, “Abu Rayhon Beruniy” hujjatli filmlari yaratilgan.

N.ning “H.A.” dostonining nasriy bayoni, “Tuhfat ul-afkor” qasidasining she’riy tarjimasi ham H.A.H. qalamiga mansubdir. 90-yillar H.A.H. faoliyatida sermahsul davr bo‘ldi. Birinketin uning yangi kitoblari nashr etildi. “Navoiyxonlik suhbatlari” (1993), “Temuriylar davri o‘zbek adabiyoti” (1996), “Adabiyotimiz ufqlari” (1997) singari kitoblar shular jumlasidandir. O‘zining oldingi tadqiqotlarida kuzatilgani kabi H.A.H. ushbu asarlarida ham adabiyotimiz tarixining bir qator muhim masalalarini yoritib beradi. H.A.H.ning “Temuriylar davri o‘zbek adabiyoti” kitobi alohida muhim ahamiyat kasb etadi. Kitobda mazkur davr adabiyotiga doir qimmatli ma’lumotlarning keltirilgani b-n bir qatorda temuriy hukmdorlarning adabiyotni, xususan, o‘zbek tilidagi adabiyotni rivojlantirishdagi xizmatlari qayd etib o‘tilgan.

Mazkur davrda H.A.H. amalga oshirgan yana bir diqqatga sazovor ish Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a” asarining nashrga tayyorlanishi bo‘ldi. Mazkur asar 2002-2003-yy.da “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalida e’lon qilindi.

H.A.H. 2002-y.da “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni b-n taqdirlangan.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Қобулов Н. Адабиётшуносликка қўшилган муҳим ҳисса. “Алишер Навоийнинг адабий-танқидий қарашлари” китоби ҳақида. – Андижон, 1959, 20.VI; Валихўжаев Б. Навоий лирикаси ҳақида тадқиқот // Ўзбек тили ва адабиёти. 1-сон, 1963; Исҳоқов Ё. Абдуқодир Ҳайитметов // Ўзбек тили ва адабиёти, 1968. 4-сон; Эркинов С. “Ҳайрат ул-аброр”нинг насрий баёни ҳақида // Ўзбекистон маданияти, 1975; Абдуғафуров А. Олимнинг ҳиссаси // Гулистон, 1976. 7-сон; Ғаниева С., Каримов Н. Абдуқодир Ҳайитметов 60 ёшда // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1986, 13 июнь; Ҳайитметов А. Навоий лирикаси (иккинчи нашри). – Т., 2015.*

S.G‘., M.A.

HAYRAT I (ar) – 1) hayron qolish, dong qotish, taajjubga tushish; 2) ikkilanish, shubhalanish, biror narsaga aqli yetmaslik. N. she’riyatida keng qo‘llangan istilohlardan bo‘lib, shoir falsafiy qarashlarining ifodasi sifatida ko‘proq majoziy ma’noda qo‘llanadi. Ya’ni, u H. haqida gapirar ekan, Alloh va olam mohiyatini anglab etishga aqlining ojizligi, ko‘nglini ba’zida shubha-ikkilanish, tashvish-taraddud chulg‘ab olganligini izhor etadi. Ma’lum bo‘ladiki, N.ning hayrati boshqa.

Shoir H. so‘zini hayronlik, shubha, ojizlik ma’nosida, asosan, korgah (dunyo, olam) istilohi b-n bog‘liq holda qo‘llaydi. M-n:

Sipehr gunbadi ichra netib qadah ichmay –
Ki, bo‘ldi mujibi hayrat bu korxona manga.

Maz.: Bu ko‘k gumbazi ichra nega may ichmayki, bu korxona, ya’ni olam mening hayratlanishimning sababi bo‘lib turibdi.

Qadah ichishdan maqsad – ma’rifat ziyosini sipqarish. Binobarin, baytning mazmunini shunday talqin qilish mumkin: “Bu olam boshdan-oyoq meni qiziqtirib, har bir narsa hayratlanishimga sabab bo‘lgan ekan, uning sirlari, mohiyatiga etish uchun nega tinimsiz izlanib, bilimimni oshirmay, ma’rifatimni ziyoda qilmay?!”

Boda ich, bu korgah vaz’ig‘a
ko‘p fikr etmagil –
Kim, anga har necha
chirmashqancha hayrat kelturur.

Maz.: Bu dunyo ishlari ustida ko‘p fikr etguncha, may ichki, unga bog‘langaning sari hayrat ustiga hayrat keltiradi.

Keltirilgan baytda ham “Borliq mohiyati, sirsinoatining o‘ylaganing sari o‘zingning ojizligingni tushunib yetasan, binobarin, dunyo ishlari haqida ko‘p behuda fikr etma-da, ma’rifatingni oshirish payida bo‘l (o‘shandan barcha haqiqatlar yuzidan parda ko‘tarilib, ko‘z o‘ngingda ilohiy sirlar namoyon bo‘ladi)” degan fikrni ilgari surgan.

Mutafakkir shoir olam sirlarini izlagani, uning mohiyatini anglashga intilgani sari H. asiriga aylanaveradi, H. o‘tida kuyaveradi:

Bu korgahda hayrat jonimni kuydurubtur.

Lekin bu dunyo ishlariga hayron-u mot bo‘lgan birgina u emas. Shuning u-n ham boshqa bir misrasida bu dunyo ahvoliga hayron bo‘lmagan kishi bormi, deydi:

Kimdurur bu korgah vaz’ig‘akim hayron emas.

Tasavvufiy ma’noda esa H. – ko‘ngilda namoyon bo‘lgan tajalliy tufayli solikning anglash va muhokamadan to‘xtaydigan bir holga yetishdir. U fanofillohga yuksalish u-n vosita bo‘ladigan maqomlaridan biri hisoblanadi. M-n:

Ko‘ngul-u ko‘z mushtoq-u yo‘luqsang, chiroyingdin Ani bexudlug‘ etib bahrasiz, ammo muni hayrat.

Abu Nasr Sarrojning ta’riflashicha, H. tahammul, tafakkur va huzurlanish asnosida oriflar ko‘nglida yuzaga kelgan, ularni fikrlash va muhokama yuritishdan chetga tortgan oydinlikdir.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Очилов Э. Бир ҳовуч дур. – Т., 2011; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4-жилд. – Т., 1985; Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5- жилд. – Т., 2008.*

E.O.

HAYRAT II – “H.A.” dostonining kirish qismiga oid uch bob (“Avvalgi hayrat”, “Ikkinchi hayrat”, “Uchinchi hayrat”)ning nomi. Nizomiy Ganjaviyning “Maxzan ul-asror”, Amir Xusrav Dehlaviyning “Matla’ ul-anvor” dostonlarining kirish qismlarida “Birinchi xilvat”, “Ikkinchi xilvat” (hatto “Matla ul-anvor”da “Uchinchi xilvat”) degan boblar bo‘lib, ularda mualliflar borliq, inson, tabiat, insoniy fazilatlar, moddiy dunyoni ma’naviy dunyo b-n qo‘shuvchi ilohiy kuch va h.k. haqida bahs yuritganlar. N. xamsachilikdagi an’anani davom ettirib, “Hayrat”da insoniylik belgilari, kecha va kunduzning, tabiatning cheksiz go‘zalligi, insonning tabiatni anglash qobiliyati, intilishi haqida she’riy-falsafiy suhbat, mulohaza olib boradi.

N.ning nazdida, insoniylikning mezoni Ko‘ngildadir. Ko‘ngil b-n inson dunyodagi barcha mavjudotlardan farq qiladi. Lekin Ko‘ngil insonga osonlikcha nasib bo‘lmagan. Azalda Ko‘ngil insondan ayri holda, biron moddiy narsa b-n qo‘shilmagan holda yashagan, olamni kezgan, ming yillar davomida o‘ziga munosib makon, vatan, vujud qidirgan. N. “Birinchi hayrat”ni go‘zal tong tasviridan boshlaydi. Borliq olamni, tabiat manzaralarini, yashnab turgan bog‘-rog‘larni yuksak ehtiros b-n vasf etadi. Ko‘ngil tonggi quyosh nurlarida alohida joziba va jilva kasb etgan butun borliqni kezib, tomosha qilib, undan zavqlanadi, ammo undagi biron narsaga qo‘shilishni, uni vatan qilishni o‘ziga loyiq ko‘rmaydi.

“Ikkinchi hayrat”da N. quyosh botib, tun boshlanganini, Ko‘ngil endi tundagi charaqlab turgan osmonni qanday sayr etganini majoziy uslubda tasvirlaydi. Ko‘ngil qushi (N. uni Xoja deb ataydi) qorong‘i kechada o‘ziga munosib makon qidirib malak singari osmonni kezar ekan, porloq sayyoralar b-n ko‘rishadi, yulduzlarning yonidan o‘tadi, ularning ravshanligiga, husniga qoyil qoladi, turli burjlarni aylanadi, biroq bu yerlardan ham istaganini topa olmaydi.

N. “Uchinchi hayrat”da Ko‘ngilning butun diqqat-e’tibori tabiat, borliqning kichik bir bo‘lagi bo‘lmish ajoyib bir shahar (“bir turfa shahr”), ya’ni insonga tushadi. Inson vujudining tuzilishini majoziy uslubda, ya’ni har bir a’zoni shaharning bir odami (“ahl”) deb tasvirlaydi. Odam

organizmi o‘ziga xos bir olam, o‘ziga xos bir mamlakat bo‘lib, uning ichki qoida va qonunlari borki, bu qoidalar ko‘p jihatdan bir shaharni, uning ichki tuzilishi va boshqarilish tartibotini eslatadi. N. inson boshini qasrga, aqlini podshohga, inson og‘zini ochilib-yopilib turuvchi eshikka o‘xshatadi va h.k. Ko‘ngil inson vujudidagi bu sir-u sinoatlarni ko‘rib, o‘ylanib qoladi, hayratga tushadi. Inson ulug‘vorligidan hayratlanish – doston nomi ham shundan. Inson vujudining tuzilishidagi mukammallik uni maftun etadi, ko‘ngil insonni o‘ziga vatan qiladi, ya’ni u b-n birlashadi. Bu b-n inson dunyodagi bor mavjudotlarning eng oliysiga aylandi. Insonda ko‘rish, sezish, hidlash, eshitish, ta’m bilish xususiyatlari ilgari ham bo‘lgan ekan. Bu xususiyatlar ma’lum darajada hayvonlarda ham mavjud. Inson o‘zining aqli, ko‘ngli, didi, ta’bi, insoniy qarashlari b-n hayvonlardan ustun turadi. Inson vujudi, tabiat tasviri Nizomiy va Dehlaviy dostonlaridagi xilvatlarda ham bor. Ammo N. bu o‘rinda, xususan, Nizomiyning insonparvarlik g‘oyalarini yanada rivojlantirdi. “H.A.”ning “Hayrat” boblarida muallifning insonni ulug‘lovchi g‘oyalari ifodalangan bo‘lib, dostondagi maqolatlarda bu yo‘nalish yanada takomillashadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Низомий. Сирлар хазинаси. – Б., 1981; Бертельс Е.Э. Избранные труды. Низами и Фузули. – М., 1962.*

Ab.H.

“HAYRAT UL-ABROR” (“Yaxshi kishilarning hayratlanishi”) – N. “X.”sining birinchi dostoni (1483). Mutafakkir shoirning diniy-tasavvufiy, ilmiy-falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta’limiy qarashlarining o‘zaro bog‘lanib, yaxlit tizimga solingan shaklidan iborat bo‘lgan mazkur doston, muallifning o‘zi “M.L.”da e’tirof etganidek, Nizomiy Ganjaviyning “Maxzan ul-asror” (“Sirlar xazinasi”) dostoniga tatabbu’ sifatida yozilgan. 63 bobdan iborat bo‘lib, 21 bobi muqaddima, 40 bobi asosiy qism (20 maqolat va ularning tasdig‘i sifatida keltirilgan 20 hikoyat yoki masal), 3 bobi xotimadir. Umumiy hajmi 3988 bayt. Sare’yi musaddasi matviyi makshuf (mavquf) (muftailun muftailun foilun (foilon) – – V V – \ – V V – / – V – (–) vaznida.

Dostonda N.ning Alloh – Olam – Odam munosabati, davlat va jamiyat, shoh va raiyat, hayot mohiyati va inson umrining mazmuni, insonning hayotdagi o‘rni va jamiyatdagi maqeyi, insoniy fazilat va illatlar, iymon va islom, ma’rifat va jaholat va boshqa haqidagi falsafiy, ijtimoiy, axloqiy, estetik qarashlari o‘zining badiiy talqinini topgan. Ayni jihatdan u nafaqat axloqiy-ta’limiy, balki ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-ma’rifiy asar hamdir. Boshqacha aytganda, u ulug‘ adibning Alloh, olam, odam, jamiyat, hayot mohiyati, inson umrining mazmuni, insoniy fazilat va illatlar haqidagi qarashlarining majmuyi, ularning nazmiy ifodasidir.

N.Mallayev “H.A.”ni kompozitsion jihatdan 3 qismga ajratadi: 1) dostonning umumiy kompozitsiyasi; 2) maqolatlar kompozitsiyasi; 3) hikoyat va masallar kompozitsiyasi. Bizningcha, unga muqaddima va xotima kompozitsiyasini ham qo‘shsa, bu tasnif tugal va mukammal bo‘ladi: muqaddima boblar – maqolatlar – hikoyatlar – xulosa boblar – dostonning yaxlit tuzilmasi.

“H.A.” g‘oyaviy mazmuni, boblarning o‘zaro uzviy bog‘lanib borishi, biri ikkinchisini talab qilishi, takomillashuvi b-n umumiy, yagona kompozitsiya silsilasiga egadir. Shu jihatdan qaraganda, hatto dostonning an’anaviy muqaddimasi bo‘lgan hamd, munojot va na’tlar uning asosiy boblari – maqolatlari b-n aloqador, chunki ularda ham dostonning maqolatlarida yetakchi bo‘lgan insonparvarlik, xalqparvarlik, ma’rifatparvarlik va didaktik mushohada kurtaklari bor.

“H.A.” muqaddimasi doston umumiy hajmining uchdan bir qismini tashkil etishini ko‘zda tutib, aytish mumkinki, bu boblar nafaqat “H.A.”, balki butun “X.”ga kirishdir.

“H.A.”ning 1-bobi “Bismillahir rohmanir rohim” jumlasidagi harflarning diniy-tasavvufiy talqini, ya’ni Haq tavhidiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda, jumladan, qabul va rad ahli xususida so‘z boradi hamda N., o‘z-o‘zidan, o‘z amalla-

rininggina emas, ayni paytda, turkiy tildagi ilk katta asar bo‘lmish “X.”sining ta’b ahli tomonidan qabul yoki rad etilishini ham ko‘zda tutadi. 2-bob Alloh taolo hamdidan iborat – unda Parvardigori olamning zarradan koinotga qadar butun mavjudotni muayyan muntazamlikda yaratgani va ilohiy qonuniyatlar asosida boshqarishi haqida hayrat va hayajon b-n yozadi. Shundan keyin Allohning avval va oxirligi, olamni yaratishdan maqsadi, qudratining chek-chegarasizligi, U yaratgan har bir xilqatning o‘zaro bog‘liqligi va bir-birini taqozo qilishi, insonning barcha mavjudotdan afzalligi, afv-u marhamatining bepoyonligi borasidagi 4 munojot (3, 4, 5, 6-boblar), Allohning olamni va odamni yaratishdan maqsadi Muhammad (s.a.v.) ekani, u zotning payg‘ambarlikkacha bo‘lgan hayoti, islom dinini Arab va Ajam mamlakatlariga yoyishi, Payg‘ambar (s.a.v.)ning ezgu fazilatlari va me’roj tasviriga bag‘ishlangan 5 na’t (7, 8, 9, 10, 11-boblar) keladi. 1-na’tda, jumladan, olamning asosida Muhammad (s.a.v.) nuri yotishi, chunki Alloh taoloning olamni ham, odamni ham yaratishdan maqsadi so‘nggi payg‘ambar ekanligi, binobarin, suratda Odam Ato Muhammad (s.a.v.)ga ota bo‘lsa ham, mohiyatda Odam Ato Muhammad (s.a.v.)ga farzand ekanligi haqidagi tasavvufiy qarashlar ilgari suriladi. 12–13-boblarda Nizomiy, Dehlaviy, Jomiy kabi ulug‘ salaflari madhida. Jomiy haqidagi bobda keltirilishicha, bir kuni ustoz-shogird o‘rtasidagi suhbat asnosida xamsachilik an’anasi, Nizomiy va Xusrav “Xamsa”lari, xususan, ularning birinchi dostonlari “Maxzan ul-asror” va “Matla’ ul-anvor” xususida so‘z boradi. Ularning birinchisini gavhar, ikkinchisini yulduzga o‘xshatadi, qolgan dostonlarda esa majoziy tasvir ustunligini ta’kidlaydi. Oradan bir-ikki oy o‘tib, Jomiy unga “Xamsa”ning ilk dostoni “Tuhfat ul-ahror” qo‘lyozmasini tutqazar ekan, boshdan-oyoq o‘qib, fikrini aytishini so‘raydi. Uni zavq b-n o‘qib chiqqan N. ko‘nglida ham mavjud “Xamsa”larning barchasi forsiyda yozilgan bo‘lib, turkiy tilda ham shunday muazzam bir asar yaratish niyati tug‘iladi.

Forsi o‘ldi chu alarg‘a ado,
Turki ila qilsam ani ibtido.

Forsi el topti chu xursandliq,
Turk dog‘i topsa barumandliq.

O‘z “Xamsa”sini turkiy tilda yaratayotganidan faxrlanib, shunday yozadi:

Turk surudi bila solib qo‘lum,
Qilsam ado: “Hay tulugum, hay tulum!”

14–15-boblar so‘z ta’rifi va ona tilida asar yaratish ishtiyoqi, 16-bob Husayn Boyqaro vasfida, 17-bob ko‘ngil ta’rifida bo‘lib, uning Haq jamoli aks etadigan ko‘zgu ekanligiga urg‘u beriladi. 18, 19 va 20-boblar ko‘ngil hayratlari haqida. 1-sayr – mulk olami (tabiat va olam), 2-sayr malakut (osmon va farishtalar), 3-sayr – inson vujudiga safari chog‘idagi ko‘rgan-kechirganlari b-n bog‘liq.

Bu o‘rinda ko‘ngilning jon, ruh ma’nosida ekanligini ham unutmaslik kerak.

Ko‘ngil ta’rifidagi bobda Alloh taoloning olamni yaratishdan maqsadi Muhammad (s.a.v.) bo‘lganidek, insonni yaratishidan ham maqsadi ko‘ngil ekanligi ta’kidlanadi. Ka’ba xalq u-n sajdagoh bo‘lsa, ko‘ngil Haq u-n jilvagoh ekanligini aytadi, ya’ni ko‘ngilda Haq zuhur etishi jihatidan u Ka’badan ham ustun:

Ka’baki, olamning o‘lub qiblasi,
Qadri yo‘q andoqki, ko‘ngul ka’basi.
Kim bu xaloyiqqa erur sajdagoh,
Ul biri Xoliqqa erur jilvagoh.

Ko‘ngil kamolot kasb etib, olami kubro – katta olamga yetguncha ranj-u mashaqqat chekib dunyo kezgan, Ka’bada ham, butxonada ham, xonaqohda ham, mayxonada ham bo‘lgan, visolda o‘rtangan, hijronda kuygan, qisqasi, ming bir baloni ko‘rgan solikka o‘xshatadi, buning natijasida u so‘fiyi sohibdilga aylanib, maskani safo taxti bo‘ladi.

21-bob Bahouddin Naqshband va Xoja Ahror madhida. 22-bobdan asosiy qism boshlanadi.

Ularda islom, iymon, hukmdorlar, riyokor shayxlar, karam, adab, qanoat, vafo, ishq, rostlik, ilm, qalam va qalam ahli, saxovat ahli, falakning tuzilishi, jaholat ahli, oliftalar, yigitlik, falak g‘amxonasi, Hirot ta’rifi, maqsadning amalga oshgani kabi mavzularda so‘z boradi. Har bir mavzuga oid fikr va qarashlarini tasdiqlash u-n hikoyat yoki masal keltiriladi. Har biri alohida mavzuga bag‘ishlanganday ko‘ringan bu maqolatlar aslida ichki bog‘lanishga ega bo‘lib, o‘zaro bir-birini taqozo qiladi, rivojlantiradi va to‘ldiradi.

“X.”ning urug‘i “H.A.”da qadalgan bo‘lib, qolgan dostonlar shu urug‘dan ungan nihollardir. Boshqacha aytganda, ular ilk dostonda ifodalangan falsafiy-axloqiy fikr-qarashlarning obrazlar vositasida ifodalangan badiiy talqinlaridir. Binobarin, “H.A.” butun turkumning nazariy dasturi bo‘lib, unda muallif fikrlari badiiy timsollar emas, balki maqolatlar va ular tasdig‘iga bo‘ysundirilgan hikoyatlar asosiga qurilgan.

“H.A.”, bir butun olganda, Insonni anglash, insonni ulug‘lash, insonlik sharafiga nomunosib kimsalarni esa qoralashga bag‘ishlangan. Shuning u-n ham dostonda insonning mohiyati, jamiyatdagi mavqeyi, uning kamoloti masalalari, insoniy fazilat va illatlar keng yoritiladi. Barcha mavzu va masalalar inson qanday bo‘lishi va qanday bo‘lmasligi kerak degan muammo atrofida aylanadi. Shuning u-n ham maqolatlarda, bir tomondan, inson tarbiyasi, kamoloti, fazilatlari, o‘zini yaratgan Alloh taolo oldidagi farzi, dunyoga keltirgan ota-ona oldidagi qarzi, jamiyat oldidagi vazifalari, iymon-e’tiqodi, axloqi xususida so‘z borsa, ikkinchi tomondan, inson kamoloti yo‘lida to‘siq bo‘lgan, uning sha’niga dog‘ tushiradigan illatlar borasida fikr yuritiladi. Shunga muvofiq, iymon va islomga bag‘ishlangan boblarda uning iymon-e’tiqodli bo‘lishi haqidagi masala ko‘tariladi, so‘ng hukmdorlar misolida adolat muammosi o‘rtaga qo‘yiladi, keyin birma-bir saxovat, axloq, qanoat, sadoqat, muhabbat, haqiqat, ma’rifat kabi fazilatlar, riyokorlik, jaholat, yolg‘onchilik, oliftalik kabi illatlar alohida-alohida boblarda maxsus ko‘rib chiqiladi.

Dostonning muqaddimasidan tortib, xotimasiga qadar ulug‘ mutafakkir shoir N. obrazi kitobxonga doimiy hamrohlik qiladi. Hatto hikoyalarda bir necha daqiqagina “chekingan” bu obraz tezda shu hikoyaning xotimasida, lirik misralarda, soqiyga qarata aytgan so‘zlari yoki qissadan hissa chiqarishi b-n yana namoyon bo‘ladi, kitobxonni yangi-yangi masalalar, o‘y-fikrlar, ziddiyatlar, kurashlar olamiga olib kiradi. Kitobxon bu obrazning sarguzashti, tashqi qiyofasi yoki boshqa jihatlari b-n tanisholmaydi, lekin doimo uning qalbi va shuuri, his-tuyg‘usi, shodligi va g‘azabi b-n birga bo‘ladi, hamma narsani u orqali bilib oladi, tushunadi, o‘ylaydi, yakun yasaydi”.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т., 1976; Қаюмов А. Асарлар. 1-жилд. 1-китоб. – Т., 2008; Валихўжаев Б. Муттоз сиймолар. – Т., 2002; Алишер Навоий: Қомусий луғат. 1–2-жилдлар. – Т., 2016.*

B.R.

“HAYRAT UL-ABROR”NING RUS TILIGA TARJIMALARI – N.ning ushbu dostoni rus tiliga to‘liq tarjima qilinmagan. Dastlab ushbu asar tarjimasiga qo‘l urgan ijodkor Mark Tarlovskiy bo‘lgan edi. U “H.A.”dan parchalar tarjima qilgan va ular N.ning rus tilida nashr etilgan kitoblariga kirgan. 1968-y.da rus tilida N.ning tanlangan asarlari chop etilgan va undan “H.A.” ning Mark Tarlovskiy tomonidan o‘girilgan iymon haqidagi, shohlar haqida, riyokor shayxlar haqida, vafo haqida, ilm haqida, hayotdan shikoyat, qanoat haqidagi boblari o‘rin olgan.

Mazkur parchalar tarjimasida M.Tarlovskiy imkoni boricha asliyatga yaqin bo‘lishga uringanligi ko‘zga tashlanadi. N. asaridagi murakkab tushunchalar va istilohlarning rus tilidagi maqbul ekvivalentlarini topishga intilishi ham bu tarjimaning ijobiy jihatini tashkil etadi.

“H.A.”ning rus tiliga nisbatan to‘liqroq tarzdagi tarjimasi Vladimir Derjavin tomonidan amalga oshirilgan. Derjavin Sharq adabiyotining ko‘plab namunalarini shu jumladan, Firdavsiy,

Hayyom, Nizomiy, Sa'diy asarlarini rus tilida o'quvchilarga yetkazib bergan tajribali tarjimonlardan hisoblanadi.

Tarjimada asarning muqaddima qismi ko'p qisqartirishlarga uchragan. Dostonning birinchi bobidan o'n birinchi bobigacha bo'lgan qismi to'liq tushirib qoldirilgan. Shuningdek, Sulton Husayn Boyqaro madhiga bag'ishlangan o'n oltinchi bob ham tarjima qilinmagan. Bundan tashqari tarjimadan Bahouddin Naqshband madhi, imon sharhi, Boyazid Bistomiyning muridi b-n suhbati, islom sharhi, Ibrohim Adham va Robiya Adviya haqidagi boblar ham o'rin olmagan. N.ning diniy-tasavvufiy qarashlarini, falsafiy qarashlarini o'zida aks ettirgan, ayni paytda "H.A."ning g'oyaviy-badiiy mazmuni va mohiyatini ochishda muhim ahamiyat kasb etuvchi yuqoridagi boblarning qisqartirilgani N. dostonining butun mahobatini, falsafiy chuqurligini to'liq aks ettirishga to'sqinlik qilgan.

Dostondagi hikoyatlar tarjimalari ancha muvaffaqiyatli chiqqan. Turli axloqiy-diniy kategoriyalarga: qaram, hayo, vafo, rostlik va h.k.larga bag'ishlangan boblarda ham muallif mazkur tushunchalarning badiiy talqinini tarjimada o'quvchiga yetkazib berishga muvaffaq bo'lgan.

Ma'lumki, mazkur asarning uchinchi maqolati sultonga bag'ishlangan. Bu bobdan N.ning zolim sultonlarini fosh qiluvchi, katta badiiy pafos b-n bitilgan misralari o'rin olgan. Tarjimada ana shu pafos, shoir misralarning fosh qiluvchi kuchi saqlanganini ko'ramiz:

Где у тебя закон? Где правый суд?
К чему твои поступки приведут?
По воле бога ты султаном стал,
А ты народ измучил обобрал!

Shu b-n birga Derjavin tarjimasida asliyatdan uzoqlashgan o'rinlar hamda asliyat mazmuni uncha to'g'ri aks ettirilmagan misralar, baytlar ham mavjud. Bulardan qat'iy nazar ushbu tarjima rusiyzabon o'quvchilarni N.ning epik merosi, dunyoqarashi va falsafasi b-n tanishtirishda muayyan ahamiyat kasb etdi. Derjavin tarjimasi to'liq holida N.ning rus tilida nashr etilgan o'n jildlik asarlari to'plami tarkibida nashr etilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навои. Сочинения в десяти томах. Том 3. – Т., 1968; Алишер Навои. Избранное. – Т., 1968.*

Q.E.

HAKAM – Da'vo va janjalda ikki tomon orasiga tushib, hukm yurituvchi, ajrim qiluvchi. N. asarlarida ma'lum munosabat b-n qo'llanilgan bo'lib, ularda H.ning ham lug'aviy ham majoziy ma'nolari nazarda tutilganini ko'rish mumkin.

Jumladan, "G'.S." devonida oshiqning ishqi tushgan go'zal yor – hukm qiluvchi hakam o'laroq tasvirlangan. Baytda oshiq gina qilmoqdaki, Yor vafo ahliga hukm qilar chog'da jafo ahlidan hakam tayin etadi, bu qanday bo'ladi?!

Ne hukm qilsa vafo ahli jurmida g'am emas,
Bu zulm erurki, jafo ahlini hakam qiladur.

"X."ning ilk dostoni "H.A."da N. shukr haqida, aniqrog'i, insonga berilgan nafas olishning shukrini ado etish haqida nasihatlar qiladi. Ulug' shoirning uqtirishicha, nafas olib, nafas chiqarishning o'zi inson hayotini ta'minlovchi bebaho ne'mat. Uni qadriga yetish kerak. Uni har qancha shukrini qilsang ham oz. Shuning u-n bu nafaslarni g'animat bilib, xayr ishlarga, Haq yo'li u-n sarf etish kerak. Agar aqlingni bu jihatga hakam etsang, aql b-n ish yuritsang, haqiqatni anglaysan.

Boshtin ayog'ig'acha qil sarfi Haq,
Tengri sanga yor, o'qusang bu sabaq.

G'aflat agar bo'lsa bu ishdin dame.
Kim yo'q aningdek kishiga motame.

Anglay olursen hakam etsang tamiz,
Kim Haq etibdur nafasingni aziz.

N.ning "S.I." dostoni 87-bobida H. b-n bog'liq hikmat berilgan. Unda N. pand berishicha, kishi

o‘zidan yoshi ulug‘, dono, tajribali oqillar so‘ziga quloq tutib, ularning ko‘ngli va aqli b-n hakam qilsa, albatta, xatodan yiroq bo‘ladi, deydi:

Begonsa anga aql bo‘lg‘och hakam,
Qilurg‘a qo‘yar hikmat ahli qadam.

Maz.: “Ilm ahllari qaysi ishga aql hakamlik qilsa va u ish aqlga ma’qul kelsagina unga qarab qadam qo‘yadilar”.

N. “M.N.” asarining sakkizinchi majlisini Sulton Husayn Boyqaroga bag‘ishlash lozimligini, agar bunday qilmasa, bu ish aqldan bo‘lmasligini ta’kidlaydi: *“Sekkizinchi majlis Sultoni Sohibqiron majlisidurki, ani andoqki, haqidur bayon qilmoq mumkin ermas va ul da’vog‘a aql-kim, munsif hakamdur, ruxsat bermas. Nechukkim, bo‘lsa shikasta va basta va ba’zi parishon va ba’zi payvasta ado topti. Emdi xilvatda dag‘i bir-ikki naql ul hazratning g‘ayri nazm latoyifidin ham bitilsa va bir-ikki so‘z sharh etilsa yiroq bo‘lmag‘ay”.*

N.ning o‘zi ham hayoti davomida ba’zan hakamlik qiluvchiga ehtiyoj tuygani uning o‘z xotiralari va zamondoshlari bitgan asarlardan ma’lum. Xususan, bir kuni azizlar majlisida soz chalinib, suhbat davom etarkan, Xoja Hasan Dehlaviyning quyidagi baytidagi:

Misoli qatrayi boron sirishki man hama durr shud,
Chunin asar dihad, alhaq, tului chun tu suhayle, –

“durr shud” iborasi ustida bahs ketganda, majlis ahli bir taraf, N.ning o‘zi bir taraf bo‘lib qoladi va shunda hakamlikka Abdurahmon Jomiy tayin qilinadi va u kishi masalani N.ning foydasiga yechib beradi.

N. “M.L.”da o‘zi yozgan risolalarni bir-bir sanar ekan, turkiy tilda yozishga harakat qilib, nechog‘li sa’y ko‘rgazganiga “Dono hakam” – Zamon baho bersin, deya Vaqtning adolatli hukmiga havola qiladi: *“Yana dog‘i rasoilga qalam surupmen va makotibga raqam urupmenki, forsiy sehrsozlar va pahlaviy afsona pardozlar ham anda avroq orasta va ajzo pirosta qilibdurlarkim, dono hakam adolat yuzidin ko‘z solsa va burungi forsiy va so‘nggi turkiy latoyif va daqoyiqidin bahra olsa, hukm so‘rar zamonida va har qaysining martabasini ta’yin qilur avonida umidim uldur va xayolimga andoq kelurkim, so‘zum martabasi avjdin quyi inmagan va bu tartibim kavkabasi a’lo darajadin o‘zga yerni beganmagay”.*

Ko‘rinadiki, N. asarlarida har bir so‘z o‘z o‘rnida ishlatilganidek, H. so‘zi ham bir necha ma’nolarda o‘z mavridida mahorat b-n qo‘llangan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Навоий асарларининг луғати. Тузувчилар: Порсо Шамсиев, С.Иброҳимова. – Т., 1972.*

S.R.

HAKIM – N.ning fors tilida yaratgan muammolaridan biri bo‘lib, “D.F.”da 153, “M.”da esa hech o‘zgarishsiz 79-raqam ostida o‘rinlashgan.

Ey sabo, jonam ba zeri xoki poi o‘ fishon,
Boz xoki poi o‘ bar go‘shai chashmam nishon.

Tarj.: Ey sabo, jonimni olib borib, u go‘zalning oyog‘i ostiga tashla. Yoki uning ko‘chasi tuprog‘idan ko‘zimning chekkasiga tekkiz.

Bu so‘z muammo halli topishning “A’moli tahsili” (hosil qilish amallari)ning raqamlik uslubi b-n yechiladi. Unga ko‘ra, “jonim = مىناج ni u go‘zalning oyog‘i ostidagi tuproqqa to‘ksak, ya’ni “jim مىج”, “nunنون ”dagi nuqtalar tashlab yuborilsa, so‘ngra “xok كاخ (tuproq)”dan “gof” ko‘zning (chashma) oxirgi harfi – “alif”ning burchagi (tepasi)ga olinsa, “Hakim مىكح ” kalimasi hosil bo‘ladi. Zero, bu usul b-n echiladigan muammolarda baytning she’riy ma’nosi va muammolik ma’nolari mavjud bo‘ladi. Muammolik ma’nosi she’riy ma’noning isbotidan iborat bo‘lganidan, u o‘quvchiga katta badiiy zavq bag‘ishlaydi. Shoir aytmoqchi bo‘lgan fikr, niyat o‘quvchi ko‘z o‘ngida o‘zining tasdig‘i b-n namoyon bo‘ladi. Shuning u-n ham muammo aytish va

yechish o‘z davrida zehnni sinash va idrokni o‘stirish vositasi hisoblangan.

Ad.: *Алишер Навоий. Девони Фоний. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Зоҳидов Л. Алишер Навоийнинг “Рисолаи муфрадот” асари ва унинг муаммолари: Филол. фан. номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. – Т., 1970.*

S.R.

HAKIM SANOIY (taxallusi, to‘liq ismi: Abulmajd Majdud binni Odam Sanoiy G‘aznaviy) (v. 1140/1150, G‘azna) – fors-tojik shoiri va mutafakkiri. Otasi ham o‘z davrining ma’rifatli kishilaridan bo‘lgan bo‘lajak alloma boshlang‘ich ma’lumotni oilada olgan. Keyin G‘azna madrasalarida tahsil olib, o‘z davrining barcha asosiy diniy va dunyoviy ilmlari – Qur’on, hadis, kalom, lug‘at, adab, nujum, tib, musiqa va boshqalarni puxta egallaydi. Hikmatda esa u o‘zini Abu Ali ibn Sinoning izdoshi deb bilar edi. Voqean, hikmat ilmida tengsizligi u-n ham unga Hakim unvoni berilgan. Uning Nishopur safarida qomusiy olim Umar Xayyom b-n tanishib, u b-n yaqin do‘stlik aloqasini bog‘lashi bejiz emas.

H.S.ning qabri mashhur ziyoratgohlardan biri bo‘lib, u yerdan sira ziyoratchilarning qadami uzilmaydi. Xonaqohi ham hamisha gavjum.

H.S. o‘zidan boy adabiy meros qoldirgan bo‘lib, ular quyidagilar:

1. Devon – qasida, g‘azal, tarkibband, tarje’band, qit’a, ruboiy janrlaridagi namunalarni o‘z ichiga olib, umumiy hajmi 13780 baytdan iborat.

2. “Hadiqat ul-haqiqat va shariat ul-tariqat” – 10 ming bayt hajmidagi bu masnaviy forsiy adabiyotning shoh asarlaridan bo‘lib, ayni yo‘nalish va uslubdagi ilk va benazir namunadir. Diniy-tasavvufiy, ilmiy, falsafiy, ijtimoiy, axloqiy qarashlarini to‘la qamrab olgani jihatidan uni shoir tafakkur olamining xazinasi deyish mumkin. Eron olimi A.Zarrinko‘b bu asarni tasavvuf pandnomasi va qomusi deb ta’riflaydi. Bu asari b-n so‘zning dodini bergani, o‘ziga abadiy haykal qo‘yganini muallifning o‘zi ham faxriya yo‘sinida xotimada ta’kidlab o‘tadi. Chindan ham, irfoniy adabiyotni so‘z san’atining shohko‘chasiga olib chiqqan bu asardan ta’sirlanib, ulug‘ avliyo va mutasavvif shoir Farididdin Attor “Ilohiynoma” va “Musibatnoma”, mutafakkir adib Jaloliddin Rumiy dunyo ilm-u adab ahlini asrlar davomida hayratga solib kelayotgan “Masnaviyi ma’naviy” kabi Sharq she’riyatining durdonalarini yaratdilar.

3. “Tariq ul-tahqiq” (“Tahqiq yo‘li”) – ilohiy ma’rifat va tasavvuf haqiqatlarining she’riy talqinidan iborat bu masnaviy 873 baytni o‘z ichiga oladi.

4. “Sayr ul-ibod ilal maod” (“Haq bandalarining asliy vatan sari sayri”) – H.S. badiiy salohiyatining mo‘jizalaridan bo‘lgan bu asar teran falsafiy mazmunga ega bo‘lib, unda shoir o‘zining chuqur va nozik irfoniy qarashlarini ramz-u majoz pardasiga o‘rab taqdim etadi. Insonning kamolot kasb etish sari sayri asarda uning donishmand pir, ya’ni aql rahnamoligida turfa nafsoniy manzillarni bosib o‘tishi tarzida tasvirlanadi. Haqiqatni anglashning turli bosqichida turgan so‘fiylar ko‘rsatiladi. Mavzuning qo‘yilishi va yoritilish tarziga ko‘ra ko‘pchilik tadqiqotchilar uni A.Dantening “Ilohiy komediya”siga qiyoslaydilar va bu ikki shoh asar o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik – vorisiy munosabat mavjudligini ta’kidlaydilar. O‘z navbatida, “Sayr ul-ibod ilal maod” b-n Abu Ali ibn Sinoning “Hayy ibn Yaqzon” asari o‘rtasida o‘zaro mushtarakliklar mavjud. Asarga sharh yozgan Faxriddin Roziyning ta’kidlashicha, u falsafiy tafakkurga moyil shoir-u adiblarga kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Jumladan, unga ergashib Farididdin Attor “Mantiq ut-tayr” (“Qush tili”) dostonini yaratgan. Sanoiy 779 baytli bu masnaviyni Saraxsda o‘ziga homiylik qilgan Sayfulhaq Muhammad ibn Mansur Saraxsiyga bag‘ishlagan. “Kornomai Balx” (“Balx voqeasi”) – 1100–1105-yy.da yozilgan hasbi hol mavzusidagi 497 baytli bu masnaviy hajviy ruhda ekanligidan “Mutoyibanoma” deb ataladi. U muayyan syujet chizig‘iga ega bo‘lmasdan, asar markazida muallifning o‘zi turib, alohida-alohida voqealarni o‘zaro bir-biriga bog‘laydi. Shoir o‘z davrida

Balxda guvohi bo‘lgan voqealar, turli toifadagi shahar ahli – davlat va din arboblari, dehqon va hunarmandlar, ularning turmush tarzi, hayotga qarashi, axloqi b-n o‘quvchilarni tanishtiradi.

5. “Aqlnoma” – 1132-y.dan so‘ng yozilgan 242 baytli bu masnaviy ham tasavvufiy mazmunda bo‘lib, ayni jihatdan “Sayr ul-ibod ilal maod”-ga o‘xshaydi. Havo timsolida 4 unsur (tuproq, suv, havo va o‘t), uning tiriklik olamidagi o‘rni, aql va ma’rifat xususida fikr yuritiladi. Pand-u nasihat ham unda keng o‘rin tutadi. Bu asar “Sanoyiobod” deb ham ataladi.

6. “Ishqnoma” – xafifi maxbuni maqtu’ vaznida yozilgan 579 baytli bu asar asosan ishq-u muhabbat mavzusidagi pand-u nasihatlar shodasidan iborat.

H.S. o‘zidan keyingi Sharq so‘z san’ati, xususan, irfoniy adabiyotga kuchli ta’sir ko‘rsatgan bo‘lib, Xoqoniy Shirvoniy, Nizomiy Ganjaviy, Farididdin Attor, Jaloliddin Rumiy, Nizoriy Ko‘histoniy kabi zabardast mumtoz shoirlarning, deyarli, barchasida bu ta’sirning yorqin izlarini ko‘ramiz. Jumladan, Nizomiy Ganjaviyning “Maxzan ul-asror” (“Sirlar xazinasi”) va “Haft paykar” (“Yetti go‘zal”), Rukniddin Avhadiyning “Jomi Jam” (“Jamshid jomi”), Farididdin Attorning “Ilohiynoma” va “Musibatnoma”, Jaloliddin Rumiyning “Masnaviyi ma’naviy” asarlari “Hadiqat ul-haqiqa” ta’sirida yaratilganligi barchaga ma’lum. Jaloliddin Rumiyning “Attor ruh edi-yu, Sanoiy uning ikki ko‘zi, biz Sanoi-yu Attor izidan keldik”, deyishi bejiz emas:

Attor ro‘h budu Sanoyi du chashmi o‘,
Mo az pai Sanoyiyu Attor omadaem.

H.S.ni o‘zining ma’naviy piri deb bilgan Rumiy shoir muxoliflariga qarshi kurashib: “Agar muslimiyat Sanoiyning ulug‘ligini ko‘ra bilsaydi, jamiki mo‘minlarning boshidan qalpog‘i tushar edi!” – deb lutf etgan edi.

H.S. shaxsiyati va ijodiyoti o‘zbek ilm-u adab ahliga asrlar davomida ma’lum bo‘lib kelgan. Jumladan, N. “N.M.” tazkirasida unga ham alohida fiqra bag‘ishlab, uning mashhur shayx, Najmiddin Kubroning muridi Raziyiddin Ali Loloning otasi b-n amakivachcha ekanligi, mutasavvif shoirlarning eng ulug‘i, peshvosi hisoblanishi, mashoyixlar o‘z risolalarida uning asarlaridan dalil sifatida iqtiboslar olganliklari, “Hadiqat ul-haqiqa” asari uning she’riyatdagi maqomi-yu ma’rifatdagi kamolini yaqqol ko‘rsatib turganligi haqida kamoli ixlos b-n yozadi. Yusuf Hamadoniy muridlari zumrasidan ekanligi haqida ma’lumot berib, tavbasining sababi haqidagi mashhur rivoyatni keltiradi. Shuningdek, ijodidan qator namunalar ham taqdim etadi. “M.Q.”da esa uni N. “haqiqat asroriga majoz tariqin” omixta qilgan shoirlar guruhiga kiritadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Абдураҳмон Жомий. Нафаҳот ул-унс. – Душанбе, 2013; Гулшани адаб. Намунаи назм дар 5 жилд. Жилд 1. – Душанбе, 1975; Абдулҳусайни Зарринкўб. Жустужў дар тасаввуфи Эрон. – Душанбе, 1992; Олимов К. Мировоззрение Санои. – Душанбе, 1973. Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988; Жилд 2. – Душанбе, 1989; Радий Фиш. Жалолиддин Румий. – Т., 1986. Девони Саноий Ғазнавий. – Теҳрон, 1380 (ҳ.-ш.); Ҳаким Саноий. Осори мунтахаб. Жилд 1. – Душанбе, 1993; Ҳаким Саноий. Рубоийлар // 333 рубоий. – Т., 2007; Ҳаким Саноий. Рубоийлар // Донишмандлар туҳфаси. – Т., 2009.*

E.O.

HAKIM TERMIZIY – (taxm. 750/760–869-yy. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali ibn Hasan ibn Bashir Hakim Termiziy) Islom dunyosining taniqli allomasi, mashhur muhaddis olim, din arbobi. Tasavvuf ilmi taraqqiyotida o‘zining salmoqli o‘rniga ega bo‘lgan bu zot Termizda tavallud topgan. Ilk ta’limini otasi Ali ibn Hasandan, so‘ngra zamonasining yetuk olimlaridan tafsir, hadis va fiqhiy imlardan saboq olgan. Balx, Nishopur, Bog‘dod, Makka, Madinaga ilm izlab safar

qiladi va zamonasining yetuk olimlari b-n hamsuhbat bo‘ladi. Hamisha hikmat tili b-n gapirgani va ilm-ma’rifatda yetuk bo‘lgani bois “Hakim” (dono, donishmand, aql-idrokli), – deb ulug‘langan. Olimlardan ba’zilari “Mohi tabib”, – deb ham atashgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, inson tabiatini chuqur bilgani bois shu nomga munosib ko‘rilgan.

N. “N.M.da eng ulug‘ shayxlar qatorida zikr qilib, mutasavviflarning ikkinchi bo‘g‘iniga kiritgan: *“Muhammad b. Ali Hakim Tirmiziy (q.t.r.) Ikkinchi tabaqadindur. Kuniyati Abu Abdullohdur. Mashoyixi kibordindur va Abu Turob Naxshabiy va Ahmad Xuzravayh va ibn Jallo bila suhbat tutubdur va ko‘p hadisi bor va zohir karomoti va tasnifi dag‘i bor”.* N. yozishicha, H.T. Xizr (a.s.) b-n hamsuhbat bo‘lgani hamda “Xatm ul-valoyat” kitobi, “Nahaj” kitobi, “Navodir ul-usul” kabi kitoblar yozgani shu b-n birga Qur’on tafsiriga kirishgani, biroq vafoti sabab tugallanmay qolgani haqida zikr qiladi.

H.T. tafsir, hadis, fiqh tasavvufga doir to‘rt yuzdan ortiq asar yozgan bo‘lib, ulardan oltmishga yaqini bizga qadar yetib kelgan. Asarlarida ash-Shayx, al-Olim, al-Alloma, muhaddis, az-Zohid, al-Hofiz, al-Imom, al-muazzin, asosan, al-Hakim taxallusini qo‘llagan. H.T. hakimiylik yo‘nalishining asoschisi hamdir. H.T. uch yo‘nalish asosida ta’limotini shakllantirgan, ular:

1. Ibodat yoki marosim (arabcha at-tuqus) yoki shariat yo‘nalishi.

2. Tasavvuf yo‘nalishi.

3. E’tiqod yo‘nalishi.

H.T. ilmiy merosining asosiy qismi qo‘lyozma holda dunyoning yirik shaharlaridagi kutubxonalarda saqlanadi. Payg‘ambar (s.a.v.) hadislarini bilishga doir nodir usullar bayon qilingan “Navodir al-usul fi Rasul” asariga o‘zi tanlab olgan 291 ta hadisni jamlab, sharhlagan. Bizga qadar yetib kelgan asarlaridan “Xatm al-avliyo”da H.T.ning valiylik haqidagi fikrlari bayon qilinadi. Umrining so‘nggi yillarida yozgan “Xatm al-avliyo” hamda “Ilal ash-shariy’at” asarlari turli qarama-qarshi fikrlar va keskin e’tirozlarga sabab bo‘lib, ona yurti Termizdan chiqib ketishga majbur bo‘lgan.

H.T. bir qancha mashhur shorgirdlar ham yetishtirgan. Ulardan Abu Muhammad Yahyo ibn Mansur al-Qoziy, Abu Mansur Ali ibn Abdulloh ibn Xolid az-Zuhliy al-Hiraviy, Abu Ali al-Hasan ibn Ali al-Jurjoniy, Ahmad ibn Muhammad ibn Iso, Abu Bakr Muhammad ibn Umar al-Hakim al-Varroq, Muhammad ibn Ja’far ibn Muhammad ibn al-Haysam ibn Umron ibn Burayda kabi yetuk murid va komil shayxlar shular jumlasidandir. Xoja Bahouddin hazratlari ham ul zotning ruhoniyatidan yuksak lutf va fayz olgan. Bu haqida N. shunday yozadi: *“Hazrat Xoja Bahouddin Muhammad Buxoriy al” ma’ruf Naqshband (q.t.a.) vaqtiki, o‘z mabodiyi ahvol-u sulukidin hikoyat ayturlar ermish va mashoyixi, kibor arvohig‘a o‘z tavajjuhlarining asarin bayon qilur ermish. Der ermishlarki, har qachon qudvat ul avliyo Xoja Muhammad Ali Hakim Tirmiziy ruhig‘a tavajjuh voqe’ bo‘lur erdi, ul tavajjuh asari mahzi besifatlig‘ zuhuri erdi va har necha ul tavajjuhda sayr voqe’ bo‘lur erdi, hech asare va garde va sifate mutolaa tushmas erdi”.*

N. mazkur tazkirasida H.T.ning hikmatli so‘zlaridan keltirib o‘tadi: “Menga nisbat berishlarini o‘ylab, biror harf yozmadim. Faqat yuragim siqilgan, ishim yurishmagan kezlari tasalli topish uchun yozar edim”.

“Kimki, bandalik sifatlarini bilmasa, u Haq sifatlarini bilmaydigan nodonroqdir”. “Undan fe’liy va zotiy sifatlar haqida so‘radilar. Aytdi: Har narsaki, ortmoq, kamaymoq ehtimoli bor – fe’liy sifatdan. Har narsaki, ortmasa, kamaymasa – zotiy sifatdan. Undan isor haqida so‘radilar. Aytdi: Boshqalarning nasibasini o‘zingnikidan ortiq ko‘rmog‘ing! Yaqin haqida so‘radilar: Aytdi: Qalbning Alloh va uning amrlari bilan qaror topishidir. Shukr haqida aytdi: Shukr – qalbni mun’im-ne’mat sohibi Allohga bog‘lashdir”.

Vafotidan so‘ng u zotga atab maqbara qurilgan. IX asrga oid mazkur me’moriy inshoot hozirgi kunda Termizdagi qadimiy va muqaddas qadamjolardan biri sanaladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Назм ул-жавоҳир. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011;*

Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Убайдулла Уватов. "Ал-Ҳаким ат-Термизий (ҳаёти ва мероси)". – Т., 2001; Убайдулла Уватов. "Икки буюк донишманд (Абу Исо ат-Термизий, Ал-Ҳаким ат-Термизий)". – Т., 2005.

E.Q.

HALIMA ONA (Halima as-Sa'diyya) – Muhammad (s.a.v.)ning sut bergan onalarining ismi. Muhammad (s.a.v.)ni ikki yoshgacha oziqlantirib, to'rt yarim yoshgacha bo'lgan muddatda esa tarbiyalagan. Arablarning bani Sa'd qabilasidan. Qabri Basra shahrida. Islom olamida mashhur bu ona haqida tarixiy ma'lumotlar talaygina. Imom Buxoriyning "Al adab – al-mufrad" hadislar to'plami (1331-hadisda), mashhur sayyoh Ibn Batutaning "Sayohatnoma" (1326–1327-yy., 1347–1348-y. voqealari) asari, Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy", Alixonto'ra Sog'uniyning "Tarixi Muhammadiy" kitoblarida va boshqalarda uchraydi.

N. "N.M." asarida shayx Ibnul Foriz Hamoviy Misriy (q.s.) to'g'risidagi zikrda H.O.ni tilga olgan: "Kuniyatlari Abu Hafsdur va otalari Umar. Va bani Sa'd qabilasidindurlarki, Halima (r.a.) Hazrat Risolat (s.a.v.)ning murzi'asi andindur". Mutafakkir shoir H.O. tufayli Bani Sa'd qabilasining mavqeyi balandligiga ishora qilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Имом Бухорий. "Ал-адаб ал-муфрад". – Т., 2006.; Ибн Батута. "Саёҳатнома". – Т., 2012.; Алихонтўра Соғуний. Тарихи Муҳаммадий. 1-нашр. – Т., 1991; Ражабова Б. Ҳалима она ва Навоий. "Оналар билан суҳбат". Рисола. – Т., 2014.*

B.R.

"**HALLI LUG'ATI CHIG'ATOYI"** (to'liq nomi "Xalli lug'oti chig'atoyi "Xamsa"yi Navoiy") – Mil. 1864–1865 (hijriy 1281) yy.da Xivada tuzilgan muallifi noma'lum o'zbekcha-forscha so'zlik. Lug'at Maxtumquli nomidagi Turkmaniston FAda "№1672 raqam ostida saqlanuvchi qo'lyozmaning 44-65 sahifalaridan o'rin olgan. Hajmi 21 bet, matn formati 16,5*9,9 bo'lib, har bet 17 qatordan iborat. Fors tilidagi mazkur qo'lyozma o'rta asrlarga oid chiroyli nasta'liq xatida yozilgan.

So'zlik kirish so'zi b-n ta'minlanmagan. Lug'at alifbo tartibda tuzilgan bo'lib, harflarga keltirilgan so'zlar miqdori turlicha. Namunalar, asosan, N. asarlaridan olingan, ayrim o'rinlarda Sayyid Habib, Mir Haydar, Mavlono Yag'mur singari ijodkorlarga murojaat qilingan. Ba'zan izohlanayotgan so'zga dalil tariqasida keltirilgan misra yoki bayt muallifi ko'rsatilmagan. *Ot, it, o't* kabi shakldosh so'zlar izohida N. devonlaridan misollar keltirilgan. Yoki "singramoq" fe'li haqida gapirganda, N.ning "M.L."da mazkur kalimaga oid qaydlarini bayon etadi. Lug'atda *qo'ton* so'ziga "S.I." dostonidan quyidagi bayt misol tariqasida olingan:

Qo'tonning ulug' qush aro soni bor,
Vale sung'ur ollinda ne joni bor.

Asarda *"qo'ton"*ning izohi "Abushqa", shuningdek, "Badoye' ul-lug'at"da ham borligi ta'kidlangan. Yoki *yot* kalimasi izohi "Badoye' ul-lug'at"da yo'qligi, "Abushqa"da esa "F.Sh." dostonidan namuna olingani ta'kidlangan. "X.L.Ch."ning o'zida N.ning "Ch.D."iga murojaat qilinib, eng xarakterli bayt tanlab olingan:

Qochib adamg'a boray-aql-u fahm-u donishdin,
Vatan borinda bu yot el aro ne bor manga?!

Umuman, aksariyat hollarda ana shunday ta'kidlar mavjud bo'lib, lug'atni shakllantirish va bir qator so'zlar tavsifida muallifning ko'pincha o'tgan asrlarda N. asarlari u-n tuzilgan shu kabi so'zliklarga suyangani ma'lum bo'ladi.

"H.L.Ch."da "to'ra" lafzi izohi berilgan o'rinlar juda qiziqarli. Lug'at muallifi so'zga ta'rif berar ekan, N.ning ayni so'zni butun mohiyati, shakldoshligi b-n ifoda etuvchi mashhur baytini keltirgan:

G‘am g‘izosi orasinda qani turkona ayog‘,
To‘ra oyini bila tomsa to‘quz, oqsa o‘tuz.

XIX asrda yozilgan “X.L.Ch.” so‘zligi butun Markaziy Osiyo va Eronda bo‘lgani kabi N. asarlariga bo‘lgan qiziqish aslo kamaymaganidan dalolat beradi. Shuningdek, turkiy tilning lug‘at tizimi boyishida, jonli xalq nutqining yashab qolishida mazkur lug‘at katta rol o‘ynaydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Мухамедова З.Б. Предварителные замечания о словаре “Hell--I Lugati Cagatai”. В сборнике: Тюркская лексикология и лексикография. – М.: Наука, 1971.*

E.U., S.O‘.

HAMD – arabiy maqtov, ulug‘lanish, madh ma’nosidagi lafz. Qur’oni Karimning ilk surasining ilk oyatlari shunday bashlanadi: “Hamd-u sano butun olamlar Xojasi, Mehribon va Rahmli, jazo (qiyomat) kunining Egasi – Podshohi bo‘lmish Alloh uchundir (Fotiha: 2/3/4)”. Demak, hamd faqat Yaratgan Allohgagina aytiladi. Ta’zim ila madhu sano aylash hamddir. So‘fiylarning nazdida, H. besh qismdan iboratdir:

1. *Hamdi qavliy va lisoniydurki*, payg‘ambarlar tili b-n Allohning o‘z zotiga sanosidir.

2. *Hamdi holiy*: Janobi Haqning holidirki, ruh va qalb ila amalga oshiriladi. Ilm va amali kamol ila mutassif bo‘lish, ilohiy axloqla axloqlanish ma’nosidadir.

3. *Hamdi lug‘aviy*: Hurmat niyati ila yolg‘iz tilda qilinadigan va go‘zal shakllarda vasf aylash demak.

4. *Hamdi fe’liy*: Vujudiy fe’llarni faqat Haq rizosi u-n amalga oshirish.

5. *Hamdi urfiy*: mo‘minga infoqi sababi ila ta’zimni ishorat etgan fe’l ma’nosidadir.

Musulmon olami adiblari o‘z asarlarini an’anaviy hamd b-n boshlashgan. N.ning barcha asarlarida ham bu an’ana saqlangan va yanada takomillashgan. Har bir asarining shakliy va g‘oyaviy xususiyatlarini inobatga olgan holda N. hamdlar aytgan. Ba’zan H. alohida bob bo‘lib keladi. N. devonida H. g‘azallarning tavhid va munojot turlari mavjud. Ular odatda “odobi tasnif”ga ko‘ra, “Basmala” ya’ni “Bismillahir rohmanir rohim”dan keyin keladi. N.ning nasriy asarlari esa qisqacha H.lar b-n boshlanadi.

Ulug‘ shoir “X.” asarining ikkinchi faslini Allohga hamd b-n boshlab, koinotdagi barcha zarralar uning Zotiga hamd aytishini ta’kidlaydi:

Hamd angakim vojibi bizzot erur,
Homid aning zotig‘a zarrot erur.

Islom aqidasi bo‘yicha inson har qancha Allohga H. aytsa ham, Uning azamati va ne’matlari qarshisida Unga munosib H. aytolmas ekan. N. ham “X.M.” devonining dastlabki g‘azallaridan birida Allohga munosib hamd aytishning imkonsizligini, hatto “koinot zubdasi” (koinotning eng sarasi, qaymog‘i) bo‘lgan hazrat Payg‘ambar (s.a.v.) ham Allohga munosib H. ayta olmasligini alohida uqtirib o‘tadi:

Ey, hamd o‘lub mahol fasohat bilan sanga,
Andoqki, qurbi taqvo-vu toat bilan sanga.

Topmoq ajib fikr-u taxayyul bila seni,
Yetmak mahol aql-u farosat bilan sanga.

Chun koinot zubdasi ojiz ko‘rub o‘zin,
Hamd ayta olmas oncha balog‘at bilan sanga.

Hazrat Muhammad (s.a.v.) duolarining birida: “Lo uhsi sanoan alayk”, ya’ni “Allohim, biz senga munosib hamd aytolmaymiz”, deyilgan. N. “F.K.” devonida shu ma’noga ishora qilib, bashariyatning eng ulug‘ insoni hazrat Payg‘ambarimiz (s.a.v.) ham “Senga munosib hamd aytolmaymiz” deganini va Allohga munosib hamd aytishning iloji yo‘qligini, dastlabki g‘azalida aytib o‘tgan:

Hamdingg‘a har ko‘tahnazar ham
gung-u lol o‘lg‘ay magar
Chunkim demish Xayrul bashar
ul yerda “lo uhsi sano”.

N. devonlarining dastlabki g‘azallarida va har bir arab harfi b-n boshlanadigan she’rlarning avvalgisida H.ning yuksak mahorat b-n yozilgan namunalarini uchratamiz. N.ning o‘zi ham bir baytida Allohning H.iga atab ko‘p she’rlar yozganini va Ahmadi Mursal Payg‘ambarimiz (s.a.v.) hurmatidan ularni qabul qilishini Allohdan iltijo qilib so‘raydi:

Navoiy ayladi hamdingg‘a nomalar irsol,
Ani rad aylamagil haqqi Ahmadi Mursal.

N. H.lari oddiy bayonchilikdan iborat bo‘lmay, ularda Alloh zoti va sifatlari balog‘at-u fasohat b-n vasf qilinadi. Favqulodda o‘xshatishlar, majozlar va tasavvufiy istilohlar orqali Alloh ta’riflanib, lirik qahramon o‘zining umidvorliklarini, samimiy tuyg‘ularini ko‘tarinki ruh va kayfiyatlarda izhor etadi:

Zihe zuhuri jamoling quyosh kebi paydo,
Yuzung quyoshig‘a zarroti kavn o‘lub shaydo.

Yuzung ziyosidin ar subh ayni ichra bayoz,
Soching qarosidin ar shom boshida savdo.

Zuhuri husnung uchun aylabon mazohirni,
Bu kuzgularda ani jilvagar qilib amdo...

N. dostonlaridagi H. va munojotlar yanada kengroq va batafsilroq ko‘zga tashlanadi. Ularda Xoliq (Yaratuvchi)ning sifatlari izchil bayon etiladi:

Ey sanga mabda’da abaddek azal,
Zoti qadiming abadiy lam’yazal.

Ne bo‘lub avvalda bidoyat sanga,
Ne kelib oxirda nihoyat sanga.

Avval o‘zung, oxir-u mobayn o‘zung,
Borchag‘a xoliq, borig‘a ayn o‘zung...

N. Allohning vasf qilish jarayonida Uning qudrati va hikmati b-n koinot va undagi yaratiqlar, xususan, odamning yaratilishi haqidagi qarashlarga duch kelinadi. Hayot va o‘lim mavzulari zikr qilinganda, lirik qahramon Yaratuvchi dargohiga yuzlanadi, gunohlarining kechirilishini va oxirat saodatiga vosil bo‘lishini so‘rab iltijo qiladi. Deyarli, har bir doston avvalida va oxirida bunday H. xarakteridagi baytlar mavjud. “H.A.”ning ikkinchi munojoti so‘nggida shoir nido va murojaat yo‘sinida Allohga shunday xitob qiladi:

Yo Rab, agar yetsam o‘shul kunga jazm,
Yoki burun aylasam ul yong‘a azm.

Ul nafas imon manga hamroh qil,
Ko‘nglum aro mahvi sivalloh qil.

Rahmati omingni nisor et manga,
Lutfi amiyming manga yor et manga.

Ba’zan H. “bihamdilloh”, “bihamdillohi taolo” kabi so‘zlar b-n ham ifodalanadi:

Chiqib bu dayrdin Isog‘a
nevchun hamnafas bo‘lmay?
Bihamdillah, tajarrud birla
himmatdin qanotim bor.

N. H. o‘rniga forscha “sipos” so‘zini ham qo‘llagan.

Ey siposing demakda el tili lol,
Elga til sendin o‘ldi tilga maqol.

Sendin insong‘a toru pudi jasad,
Jasad ichra ko‘ngul, ko‘ngulda xirad.

N.ning nasriy asarlaridagi H.lar qisqa va asarning mavzu mundarijasiga ishora qilingan. M-n, “M.L.”da ikki til muhokamasi haqida so‘z borgani u-n H. shunday boshlangan: “Alhamdu

lillohi imtozal-insona alo soiril-maxluqoti bi-sharafin-nutq-val-lisoni va azhara min azubati lisonihi va halovati bayonihi sukkarish-shukri va shahdish-shuhudi val-imtinoni”. Tarj.: “Insonni nutq va til bilan sharaflab, tilining shirinligi, fikr bayon etishining go‘zalligi, shukr aytishning shakari, (Allohning birligiga) guvohlik berishining asali va minnatdorchiligi tufayli uni (insonni) yaratgan, barcha boshqa jonzodlardan ulug‘ va mumtoz qilgan Allohga hamd-u sanolar bo‘lsin”. Shuningdek, N. har bir asaridagi H.larni rang-barang jumlalar bilan boshlaydi. “H. angakim, zotig‘a hamd onchakim, sazovordur, aytsa bo‘lmas... (M.Q.)”. “Hamdi mavfur ul soni’g‘akim...” (M.), “Komil hamd va vofir shukr ul soni’g‘akim...” (M.A.) “Yuz hamd angakim yasab jahon bo‘stoni...” (M.N.). “Hamd angakim kalomi xayrmaol...” (A.). “Zihi isming azim, rahmonlig‘u rahimlig‘ing – vojibut-ta’zim...” (M). va h.k.

N. H.lari samimiyligi, tili, uslubi, ilmiyligi va ohangi b-n kitobxonni o‘ziga jalb qilgan holda, uning diniy va e’tiqodiy qarashlariga ta’sir qiladi. Alloh va uning yaratiqlari, olam va odam, dunyo va oxirat, hayot va o‘lim kabi mavzular haqida tafakkurga chorlaydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик, 1-10- жилдлар. – Т., 2011; Ислом. Энциклопедия. – Т.: 2017.*

I.H., Z.R.



HAMZA Hakimzoda Niyoziy (1889, Qo‘qon – 1929, Farg‘ona, Shohimardon) – shoir, yozuvchi, pedagog, teatr arbobi. O‘zbekiston xalq yozuvchisi (1926). Eski maktab va madrasalarda tahsil olgan (1896–1908).

Ijodi 1905–1906-yy.da boshlanib, Sharq mumtoz so‘z san’atining Hofiz, N., Fuzuliy, Mashrab, Amiriy, Fazliy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy kabi shoirlari ta’sirida, ularga ergashib, g‘azal, murabba va muxammaslar yozgan. 1914-y.da tartib bergan qo‘lyozma devoniga 1905–1914-yy.da Nihoniy taxallusi b-n yozilgan 214 ta she’ri kiritilgan.

Ma’lumki, H. Sharq mumtoz so‘z san’atining Xo‘ja Hofiz, N., Fuzuliy, Mashrab, Amiriy, Xaziniy, Fazliy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy kabi shoirlari ta’sirida, ularga ergashib, g‘azal, murabba va muxammaslar yozgan. U ta’sirlangan so‘z san’atkorlari silsilasida N. alohida ajralib turadi. H. buyuk shoirni ijod yo‘lida o‘ziga ustoz deb bilgan, undan mahorat sabog‘ini olgan, uning ta’sirida bayt va g‘azallar yozgan, ba’zi g‘azallariga tatabbu’lar qilgan. Jumladan, “Ango”, “Paydo”, “Bor”, “Tama’”, “Xos” radifli g‘azallari N.ga ergashib yozilgan bo‘lsa, “Judo”, “Ayt”, “Bo‘ldum sango”, “Mani” radifli g‘azallari bevosita ulug‘ salafiga tatabbu’dir. M-n, H.H.N.ning “Layoqatsiz kishiga tarbiya behuda, chunki tagi pastlik, tiynati buzuqlik azaldan unga taqdir qilingan mazmunidagi:

Hojat ermas tarbiyat noqobil ahliga, Nihon,
Badguhar, badasllik taqdir o‘lg‘ondur ango, –

bayti esa salafining quyidagi mashhur qit’asini esga soladi:

Nokas-u nojins avlodin kishi bo‘lsun debon,
Chekma mehnatkim, latif o‘lmas kasofat olami.

Kim, kuchuk birla xo‘tukka necha qilsang tarbiyat,
It bo‘lur, dog‘i eshak, bo‘lmaslar aslo odami.

Hamzaning mana bu bayti ham buyuk salafi misralariga hamohang jaranglaydi:

Nihoniy, ranjima, sayyod ilmin o‘zga ibrat tut,
Hama sayyod har yurgan kuchukni boqsa toz o‘lmas.

Maz.: Ey Nihoniy, (bu dunyo ishlaridan) sira xafa bo‘lma-yu, ovchi ilmidan o‘zingga ibrat ol: har bir ovchi har yurgan kuchukni boqqani bilan u chopag‘on ov iti bo‘lolmaydi.

“M.Q.”ning 89-tanbehida ham shunga o‘xshash qit’aga duch kelamiz:

“Qobilg‘a tarbiyat qilmamoq zulmdur va noqobilg‘a tarbiyat – hayf. Ani adami tarbiyat bila zoye’ qilma va munga tarbiyatingni zoye’ qilma.

Qit’a:

Qobilg‘a tarbiyat erur ul nav’kim, guhar
Tushsa najosat ichra yug‘ay kimsa ani pok.

Gar it uzumig‘a kishi may birla bersa suv,
Bu tarbiyat bila qila olg‘aymu ani tok.

“Qobiliyatli bolani tarbiyasiz qoldirish unga nisbatan zulm bo‘lsa, qobiliyatsiz bolani tarbiyalashga urinish behuda ishdir”, – deydi shoir va o‘zining bu fikrlarini hayotiy misollar vositasida badiiy go‘zal bir tarzda asoslab beradi: “Qobiliyatli bolani tarbiyalash najosat ichiga tushgan gavharni yuvib poklashga o‘xshaydi. Lekin ituzumini may bilan sug‘orsa-da, u tokka aylanmaganidek, qobiliyatsiz bolani har qancha tarbiyalasang ham ko‘zlagan maqsadingga erisholmaysan”.

Albatta, ulug‘ shoir bu b-n qobiliyatli bolani tarbiyalash-u qobiliyatsiz bolani tarbiyasiz qoldirish kerak, demoqchi emas, balki hayotda ba’zida zehnli va layoqatli bolalar tarbiyasiz qolib ketayotgani, buning natijasida yorqin iste’dodlar xor bo‘layotganiga kishilar e’tiborini qaratishni maqsad qilgan.

H. N.ning qator g‘azallariga tatabbu’lar ham qilgan.

M-n:

Bu na yanglig‘ mojarodur husni xubondin judo,
Ma’shuqi ushshoqdin, ushshoqi jonondin judo, –

g‘azali N.ning:

Ne navo soz aylagay bulbul gulistondin judo,
Aylamas to‘ti takallum shakkaristondin judo, –

matla’li g‘azaliga tatabbu’ hisoblanadi. G‘azal ham, unga qilingan tatabbu’ ham ramali musammani maqsur (foilotun foilotun foilotun foilun) vaznida yozilgan. Har ikkalasi ham 7 baytdan iborat. N. g‘azalining qofiyalari quyidagicha: *gulistondin, shakkaristondin, afg‘ondin, jondin, jonondin, ondin, shabistondin, sultondin*. Hamza g‘azalining qofiyalari esa: *xubondin, jonondin, gulistondin, jonondin, jondin, shakkarafshondin, afg‘ondin, imondin.* Ko‘rinib turganidek, N. g‘azalidagi to‘rt qofiya H. g‘azalida ham takrorlangan: *gulistondin, jonondin* (bu qofiya ikki marta kelgan), *jondin, afg‘ondin*. Uch qofiya yangi: *xo‘bondin, shakkarafshondin, imondin*. Lekin mazmun jihatidan ikki g‘azal o‘rtasida o‘xshashlik yo‘q. H. buyuk salafidan ilhomlanib, ayni g‘azal vazni, qofiya va radifida butunlay yangi g‘azal ijod qilgan.

Bir ko‘rub ul kun jamoling mubtalo bo‘ldum sanga,
Andalibdek furqatingda purnavo bo‘ldum sanga, –

g‘azali ham mashhur:

Ko‘rgali husnungni zoru mubtalo bo‘ldum sanga,
Ne balolig‘ kun edikim, oshno bo‘ldum sanga? –

bayti b-n boshlanadigan g‘azaliga tatabbu’ bo‘lgani b-n ikkinchi baytdan boshlab mutlaqo boshqa o‘zanda davom etadi. Bu g‘azal va unga qilingan tatabbu’ ham ramali musammani maqsur vaznida. Lekin N. g‘azali 7 baytdan iborat bo‘lsa, unga qilingan tatabbu’ 13 bayt hajmida. G‘azalda *mubtalo* (2 marta), *oshno, mango* (2 marta), *balo, gado, benavo* kabi so‘zlar qofiya bo‘lib kelgan bo‘lsa, tatabbu’da *mubtalo, purnavo, fano, oshno, gado, suvo, judo, motamsaro, rizo, charo, ado, xafo, qaro, hokazo* kabi qofiyalar ishlatilgan. G‘azaldagi *mubtalo, oshno, gado* qofiyalarigina tatabbu’ga ham ko‘chgan bo‘lib, qolgan barcha qofiyalar yangi. Tatabbu’ning faqat ilk misrasi N. g‘azali b-n mushtarak. Hatto qofiyalar takrorlangan baytlarda ham tatabbu’ qilingan g‘azalga o‘xshashlikni emas, balki o‘ziga xos fikr va tashbehlar ifodasini ko‘ramiz.

N. g‘azali 9 baytdan iborat, bo‘lsa unga qilingan tatabbu’ 8 bayt hajmida. G‘azal ham, tatabbu’ ham ramali musammani maqsur vaznida. G‘azalning qofiyalari: *xiromon, xandon, paymon, nomusulmon, jonon, pushaymon, fatton, nodon,*

guliston, suxandon. Tatabbu’ qofiyalari: *sulton, ummon, xandon, g‘ilmon, cho‘lpon, tobon, bo‘ston, jonon, shohon.* Aytish mumkinki, birgina *jonon* so‘zini hisobga olmasa, tatabbu’ning, deyarli, barcha qofiyalari yangi. “Gulbargi xandon” ham “sadbargi xandon”ga aylangan.

G‘azal va tatabbu’ o‘rtasidagi mushtarak va o‘ziga xos jihatlar matla’ning o‘zidayoq ko‘zga tashlanadi. Bu o‘rinda Hamza ustoz shoirdan ilhomlanib, u yozgan g‘azal vazni, qofiya va radifida o‘ziga xos yangi g‘azal yaratgan.

Ma’lum bo‘ladiki, H.ning shoir sifatida shakllanishi, mahorat sirlarini o‘zlashtirishi, she’rlarining badiiy jihatdan barkamollik kasb etishida N. ijodxonasidan olgan saboqlarining o‘rni beqiyos.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик. 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий. ТАТ. 5 жилдлик. – Т., 1988-1989.*

E.O., M.A.

HAMID Olimjon (A’zimov) – (12.12.1909. – Jizzax, 03.07.1944. – Toshkent) o‘zbek adabiyotining yorqin siymolaridan biri, shoir, dramaturg, jamoat arbobi. Hurmat belgisi ordeni b-n mukofatlangan (1939), O‘z FA.ning muxbir a’zosi (1943). Hamid Olimjonning N.ning ulug‘ siymosi, hayoti va ijodiga qiziqishi 1930-yy.dan boshlangan. 1938-y. sentyabrda O‘zbekiston Oliy Kengashi Prezidiumi “Ulug‘ o‘zbek shoiri Alisher Navoiy tug‘ilgan kuniga 500 yil to‘lgan kunni nishonlash uchun yubiley komitetini tuzish haqida” qaror qabul qilgan. 38 nafar taniqli davlat va madaniyat namoyandalaridan iborat qo‘mita tuzilgan. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining raisi Hamid Olimjon Navoiy yubileyi qo‘mitasining ma’sul kotibi (1938), keyinchalik esa rais o‘rinbosari (1940) etib saylangan. Uning boshchiligida 1940-y.da N. tug‘ilgan kunining 500 yillik yubileyiga qizg‘in tayyorgarlik ishlari boshlanib ketgan. H.O. N.ijodiga oid “Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni haqida”, “Navoiy – o‘zbek tilining yaratuvchisi”, “Navoiy va bizning davrimiz” singari o‘zbek va rus tillarida yigirmadan ortiq maqola yozgan. “Navoiy – o‘zbek tilining yaratuvchisi” nomli maqolasida u hayrat va iftixor tuyg‘usi b-n N.ning o‘zbek tili maqomini ko‘tarishdagi ulug‘ xizmati, katta matonat b-n ona tilida bitgan durdona asarlari, samarali ijodi, uning kitoblari nafaqat o‘zbek tili, balki fors, arab tillari u-n ham lug‘at boyligi ekani, fayzli uyi – Unsiyasi, boy kutubxonasi haqidagi masala va muammoni yoritib berishga harakat qilgan.

H.O.ning tashkilotchiligida N.ning eng yaxshi portretini yaratish yuzasidan musobaqa tashkil qilingan, natijada, buyuk mutafakkirning ellikdan ziyod portreti yaratilgan. Ular orasidan toshkentlik rassom V.Kaydalov tomonidan yaratilgan N.ning grafik portreti mukofotga sazovar bo‘lgan.

H.O.ning tashabbusi b-n Izzat Sulton va V.Shklovskiy N. haqidagi film ssenariysini, Uyg‘un va Izzat Sulton dramani yozgan. Oybek va Mirkarim Osimni N. to‘g‘risida tarixiy roman va qissa yozishga undagan ham H.O. bo‘lgan. H.O. da’vati b-n N. asarlarining tarjimasiga L. Penkovskiy, V.Derjavin, S.Lipkin, V.Rojdestvenskiy kabi taniqli shoirlar va turkolog olim N.Lebedev singari fidoyi kishilar jalb qilingan. M-n, N.Lebedev N.ning 70 dan ziyod g‘azalini “S.S.” va “L.T.” dostonidan parchalarni, ruboiy, muxammas, soqiynomalarni rus tiliga mahorat b-n tarjima qilgan.

1940-y. 8-yanvarda “L.M.” dostoniga bag‘ishlangan yig‘ilish b-n n.xonlik konferensiyalari o‘z ishini boshlagan. Konferensiyani H.O. kirish nutqi b-n ochgan. Shundan keyin Y.E.Bertels, T.Jalolov, A.Umariy “L.M.” dostonining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari xususida ma’ruzalar qilishgan. G‘.Sodiqov, R.M.Gliyer esa “L.M.” operasi ustida olib borgan ijodiy ishlari haqida gapirib bergan.

N. yashagan davr va shoir ijodini o‘rganish yuzasidan o‘tkazilgan konferensiya, seminar,

kurslarda ham H.O.ning o‘zi N. dunyoqarashi, uning ezgulik, insonparvarlik, adolat, do‘stlik va muhabbat, vatanparvarlik va mehnatsevarlik, odamiylik hamda o‘zbek tili va adabiyoti, madaniyati tarixidagi buyuk xizmati haqida ko‘plab ma’ruzalar o‘qigan. N. “F.Sh.” dostonida yozgan Farhod va Xusrav o‘rtasidagi mashhur ikki yuz misraga yaqin dialogik lavhani va N. she’rlarini yoddan aytib bergan va keng jamoatchilikni N. shaxsi, ijodiga qiziqtira olgan. Akad. Naim Karimov so‘zlari b-n aytganda, “Hamid Olimjon o‘zining buyuk faoliyati bilan Navoiy sharafiga xazon bo‘lmas chechaklardan yasalgan gulchambar qo‘ygan”.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Олимжон Ҳ. Навоий – ўзбек тилининг яратувчиси. “Гулистон” журнали, 2019, 6-сон; Каримов Н. Ҳамид Олижон: ҳаёти ва ижодидан лавҳалар. – Т., 1979.*

B.R.

HAMIDOV Ziyod (1947) – f.f.n., dotsent. 1982-y. “Lison ut-tayr”ning leksik-semantik va poetik xususiyatlari” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasi yoqlagan. Olim dostonda qaytariqlari b-n jami 21.676 so‘z va ibora ishlatilganligini qayd etgan. Qaytariqsiz so‘zlar miqdori 5004. “L.T.”da 778 ta o‘zbekcha, 2048 ta arabcha, 940 ta forscha so‘z va birikmalar ishlatilgan. So‘z va iboralar 30 dan ortiq mavzu guruhga bo‘lib o‘rganilgan.

Dostondagi so‘zlar omonimlarga bo‘lingan: o‘zbekcha-o‘zbekcha: *oy* (planeta) – *oy* (mahbuba); arabcha-arabcha: *sarir* (taxt) – *sarir* (g‘ichirlash); forscha-forscha: *moh* (planeta) – *moh* (baliq). Antonimlar ma’lum so‘zlar guruhini tashkil qiladi: o‘zbekcha-o‘zbekcha: *o‘t-olov*; forscha-forscha: *shoh-gado*; arabcha-arabcha: *noqis-komil*.

Shoir dostonda takrir, tasdir, tasbig‘, tarsi’, saj, iyhom, intoq, tazod badiiy san’atlardan ustalik b-n foydalangan. Quyidagi baytda *dam* so‘zi iyhom san’ati orqali ikki ma’noda ishlatilgan: 1. so‘z; 2. nafas:

K-ey, daming jonbaxsh-u nutqung dilpisand,
Ikkisi jon-u ko‘ngulga sudmand.

Dam kalimasi *so‘z* ma’nosida kelsa, bayt quyidagicha bo‘ladi*:*

K-ey, so‘zing jonbaxsh-u nutqung dilpisand,
Ikkisi jon-u ko‘ngluma foydali.

Dam so‘zi *nafas* ma’nosida kelsa, bayt ma’nosi o‘zgacha bo‘ladi:

K-ey nafasing jonbaxsh-u nutqung dilpisand,
Ikkisi jon-u ko‘ngulga foydali.

H.Z shoir asarlarining tili bo‘yicha 6 qo‘llanma, 70 ga yaqin maqola e’lon qilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Лексико-семантическое и лингвопоэтическая исследование языка “Лисон-ут-тайр” Алишера Навои. – Автореф. Дисс. Канд. Филол. Наук. – Т., 1982.*

E.U.

“HAMKORLIK SAMARALARI” – Alisher Shomuhamedovning “Devoni Foniy” tadqiqi misolida N.ning tatabbu’navislik mahoratini tekshirishga bag‘ishlangan risolasi (1982). Risolada dastlab tatabbu’, nazira, tavr tushunchalari xususida fikr yuritilib, ularning mushtarak va farqli jihatlari ko‘rsatiladi. Bu tushunchalardan har birining o‘ziga xosligi, qamrov doirasi, Sharq mumtoz she’riyatidagi mavqeyi va rivojini tayin etishga harakat qilinadi. So‘ng Abdurahmon Jomiyga tatabbu’lari misolida N.ning bu boradagi mahorati, tatabbu’larining badiiyati ochib beriladi hamda “Alisher Navoiy forsiy she’riyat taraqqiyoti tarixida ham o‘z mavqeyini mustahkamlay olgan, uning keyingi taraqqiyotiga katta ta’sir ko‘rsatgan so‘z san’atkoridir”, degan xulosaga kelinadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Девони Фоний. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Шомуҳамедов А. Ҳамкорлик самаралари. – Т., 1982.*

M.A.

HAMMOMLAR N. o‘z mablag‘lari hisobidan Hirot va uning atrofida qurdirgan hammomlar soni to‘qqiztadir: Shifoiya yonida, Ziyoratgoh, Darayi zang, Tuvurchi (tevachi), Chexilduxtaron, Tarnob, Panjdeh, Fayzobod, Sa’dobod. N. turli xil me’morchilik inshootlari: masjid, madrasa, kutubxona, xonaqoh, karvonsaroy, hammom, rabot, hovuz va ko‘priklarni bunyod qilishda me’mor ustalar b-n maslahatlashib, binoning chizmasi xususida takliflar bergan. N. tomonidan qurdirilgan mazkur inshootlarning bir-biriga yaqin joyda, ansambl ko‘rinishida bo‘lishiga e’tibor qaratilgan. Bu haqida Davlatshoh Samarqandiy “Tazkirat ush-shuaro”da shunday yozadi: “Poytaxt shahar Hirotda ulug‘ amir tomonidan qurdirilgan imoratlardan masjidi jome, madrasa, xonaqoh, dorushshifo va hammom. Bularning barchasi bir yerda, jannat salsabili hamda arig‘ining rashkini keltiradigan Injil arig‘i yoqasidadir”. N. qurdirgan hammomlardan biri “Safoiya” hammomi o‘z davrida nihoyatda mashhur bo‘lgan. Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”da Hirotni ta’riflar ekan, N. qurdirgan va ta’mirlatgan madrasa, masjid, maqbara, hovuz va bog‘larni ham tasvirlab: “... hammominikim “Safoiya” – derlar, borini andak fursatta sayr qildim”, – deb yozadi.

Ad.: *Заҳириддин Муҳаммад Бобур. “Бобурнома”. – Т., 1989; Ғиёсиддин Хондамир. “Макорим ул-ахлоқ”. – Т., 2018; Навоий замондошлари хотирасида. Тузувчи: Б.Ахмедов. – Т., 1985.*

E.Q.

“HAR IMORATKIM TUGANDI GARCHI SHO‘XEDUR JAMIL...” – N.ning “N.Sh.” devonidan o‘rin olgan qit’asi:

Har imoratkim tugandi garchi sho‘xedur jamil,
Bo‘lsa koshikorlig‘ aylar jamolin birga o‘n.
Bu yaqindurkim jamol ahli yolongliqdin base,
Yaxshiroqdur o‘lsa koshi naqshliq egnida to‘n.

Akad. Ibrohim Mo‘minov Amir Temur hukmronligi davrida Samarqandning tashqi chiroyi butunlay o‘zgarib ketganligini ta’kidlab yozadi: “Temur Samarqandda Ko‘ksaroy, Bibixonim masjidini, Shohizinda mavzoleyini, Samarqand atrofida Bog‘i Chinor, Bog‘i Shamol, Bog‘i Dilkusho, Behisht, Bog‘i Nav kabi bog‘ va saroylarni qurdirdi”. Amir Temur Buxoro, Shahrisabz, Farg‘ona va Turkistonda ham karvonsaroy, masjid va maqbaralar bino ettirgan. Xullas, shaharlar, qishloqlar, hammomlar, madrasalar, maqbaralar qurilishi o‘sha davrlarda misli ko‘rilmagan miqyosda olib borilgan edi. Mana shu binokorlik, me’morlik an’anasi Amir Temur vorislariga ijobiy ta’sir o‘tkazib, ular ham qurilish ishlariga alohida e’tibor bergan edilar. Olimlarning e’tiroflariga ko‘ra, binokorlik an’anasi Shohrux va Ulug‘bek zamonlari-da keng avj olgan bo‘lsa, Abusaid va Sulton Husayn hokimligida yanada yuqori bosqichlarga ko‘tarilgan. Balki shuning u-n N. ham har bir imoratning zohiriy ko‘rki, ayniqsa, naqshiy mahobati xususida qayg‘urgandirlar. Qit’adan ayon bo‘lishicha, qurilgan yoki qurilajak imoratlarning shunchaki go‘zalligi shoirni qanoatlantirmagan. Imorat nozaninlarga o‘xshab chiroyli va ko‘rimli bo‘lishi mumkin. Ammo “Bo‘lsa koshi korlig‘ aylar jamolin birga o‘n”. Koshi – imorat g‘ishtlarining har xil rang va bo‘yoq berilib pishirilgani. Demak, koshin b-n naqshlash, bezakdorlik binoning bir jamoliga o‘n jamol qo‘shadi. Chunki “jamol ahli” – husn-u latofat sohibalari ham egnidagi naqshli to‘nlari b-n jozibali.

Ad.: *Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2011; Ҳаққул И. Касби камол ўзни танишдир. – Т., 2021.*

I.H.

“HAR KISHIKIM TOPSA DAVRON ICHRA JOH...” N.ning “F.K.” devoniga kiritilgan qit’a:

Har kishikim topsa davron ichra joh-u e’tibor,
Kim aning zotida bedod-u sitam bo‘lg‘ay qilig‘.

Yaxshilig‘ gar qilmasa, bori yomonlig‘ qilmasa,
Kim yomonlig‘ qilmasa, qilg‘oncha
bordur yaxshilig‘.

“Mansabga erishgan do‘st – boy berilgan do‘st” – degan ekan donishmand. Mansab-u martaba kishini o‘zgartiradi. Amalga minganda havolanmaydigan odam kam. Hazrat N.ning: “Har kishikim topsa davron ichra johy (amal, yuqori martabali o‘rin) e’tibor”, deyishlariga qaraganda, mansab poyalaridan yuqorilashgan sayin insoniylikda tubanlashmay, zulm-u zo‘ravonligini orttirmagan kishilar, deyarli, bo‘lmagan. Qit’aning oxirgi bayti, bundoq qaralganda, bir nasihat yoki istak. Lekin unda javonmardlikning shartlaridan biri ifoda etilgan. Javonmardlik yoki futuvvat deb atalgan ta’limot Yaqin va O‘rta Sharqning qator mamlakatlarida keng tarqalgan. Bu ta’limotning tarafdorlari ijtimoiy tenglik va adolat u-n kurashganlar. XIV asrlarda Movarounnahrning Samarqand, Buxoro singari yirik shaharlarida ushbu harakatning ko‘plab faol namoyondalari yetishib chiqqan.

Bir odamdan: “Qanday kishi javonmard atalishga loyiqdir?” – deb so‘raganlarida, u: “Nuh payg‘ambarning yaxshi xulqi, Ibrohim ishonchi, Ismoilning to‘g‘riligi, Muso samimiyati, Ayub sabri, Dovud iztirobi, Muhammad shijoati, Abu Bakrning hamdarligi, Usmonga xos uyatchanlik, Alining bilimdonligini o‘zida mujassamlashtirgan kishi juvonmarddir. Shular b-n bir qatorda, u odam o‘zini tergashi, ya’ni bor narsasidan mag‘rurlanmasligi, hech payt shaxsiyatparastlik qilmasligi, maqtovga uchmasligi, hamisha va hamma joyda o‘z sifatlardan faqat kamchiliklarini, birodarlarining xulqidan esa yaxshi va mukammalliklarini ko‘rsatishi shartdir”, – degan ekan.

Manmanlikdan butunlay kechmoq, birovga qasd etmaslik; til va dil birligi; tafakkur mehnatiga ega bo‘lmoq; muloyim so‘zlik; safarni sevish; tan va kiyimni pokiza tutmoq; sir saqlash layoqatiga egalik; kamtarinlik va xoksorlik. Bular juvonmardlik odobining qoidalaridir. Javonmardlikda xaqiqatga sadoqat – yashashning tub mohiyatidir. Bu oqim kishilarining e’tiqodi bo‘yicha, hamma vaqt va har qanday vaziyatda faqat haqiqatni so‘zlash kerak. Haqiqatga xiyonat – jamiki ezgulikka xiyonat hisoblangan. Chunki haqiqatdan hamma ishlar haqiqat tomonga yurishadi. Faqat ugina adolat va diyonatga chin posbondir. “Qobusnoma”da javonmardlikning asosi uch narsada deb belgilangan. Biri – aytgan so‘zingni o‘zing bajarish. Ikkinchisi – to‘g‘rilikka aslo xilof ish qilmaslik. Uchinchisi – xayr-u ehsonni ko‘zlash. Juvonmard va’dasiga vafo etguvchi, sofdil va rostgo‘ydir. U bechora va g‘ariblarga madad ko‘rsatishdan madad topgan. Yomonlardan yaxshilarni himoya qilishdan rohatlangan. Hazrat N. fardlaridan birida:

Muruvvat barcha bermakdur emak yo‘q,
Futuvvat barcha qilmoqdur, demak yo‘q, –

deb yozganlarida ham javonmardlikning axloqiy talablarini aks ettirgan edilar. “Qobusnoma”dan o‘qiymiz: “Bilgilki, javonmardlikning takomillashgani shunday bo‘ladiki, u o‘z molini o‘ziniki, boshqaning molini boshqaniki deb biladi. Xalq molidin tama qilmagil, o‘z qo‘ling bilan qo‘ymagan narsani olmagil. Xalqqa yaxshilik qila olmasang ham yomonlik qilmag‘il”. N. xuddi shu keyingi jumladagi fikrni:

Yaxshilig‘ gar qilmasa, bori yomonlig‘ qilmasa,
Kim yomonlig‘ qilmasa, qilgoncha
bordur yaxshilig‘, –

shaklida bayon etganlar va rivojlantirganlar. Bizningcha, baytda faqat ma’no emas, chuqur mohiyatli ishorat ham bor. Bobokalonimiz bu ishorat orqali javonmardlik ta’limotining insonsevarlik shartlariga diqqatni tortishni ko‘zlagan bo‘lishlari ham ehtimoldan uzoq emas.

Ad.: *Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011; Ҳаққул И. Касби камол ўзни танишдир. – Т., 2021.*

I.H.

“HAR QACHONKIM KEMAGA UL OY...” – “G‘.S.” devoniga kiritilgan g‘azal.

Har qachonkim kemaga ul oy safar raxtin solur,
Mavjlug‘ daryo kebi oshufta ko‘nglum qo‘zg‘alur.

Yig‘lama, ey ko‘z, nedin sohilg‘a
chiqmas kema deb
Kim, yoshing daryosidur har
sarikim el ko‘z solur.

Titrabon siymobdek ko‘nglum,
yetar jon og‘zima
Tund yel tahrikidin har damki,
daryo chayqalur.

Sabr ko‘nglumda, ko‘ngul ul oyda,
ul oy kemada,
Vahki, borib telmurub ko‘z,
mungrayib jonim qolur.

Dam tutulg‘andin o‘lar
eldek yetibmen o‘lgali
Surmasun deb kemasin baskim
nafaslar asralur.

Kirma savdo bahrig‘a olamdin
istab sudkim,
Siym naqdi tushsa,
lekin umr naqdi siyg‘alur.

G‘arq etar bahri fano g‘am
zavraqin, ey piri dayr,
Ilgiga chunkim Navoiy boda
kashtisin olur.

She’riyatda taassurot – tasavvurga, tasavvur esa taassurotga yo‘l ochib, doimo ular bir-birini qo‘llab-quvvatlaydi. O‘z vaqtida tasvirlanmagan taassurotni tasavvur zaminida tiklash mumkin bo‘lganidek, tasavvurda saqlanib qolgan taassurotdan asar yaratish u-n bemalol foydalanish mumkin. Ba’zan shoir ilk taassurotdan emas, uning takroridan she’r yaratadiki, “G‘.S.” devonidagi:

Har qachonkim kemaga ul oy safar raxtin solur,
Mavjlug‘ daryo kebi oshufta ko‘nglum qo‘zg‘alur.

bayti b-n boshlanadigan g‘azal buning bir misolidir. Ilk misradagi gapga qaraganda, ma’shuqaning suv yo‘li b-n safarga jo‘nashi birinchi bora emas – u kiyim-kechaklarini yig‘ishtirib, avval ham kemaga chiqqan. Bu hodisadan oshiqning ko‘nglida daryo to‘lqiniga monand shiddatli bir qo‘zg‘alish bosh ko‘taradi. Ko‘ngildagi qo‘zg‘alish, albatta, ayriliq dardi, hijron alamidir. Bu hol sho‘rlik oshiqni shu qadar yig‘latadiki, uning ko‘z yoshlaridan yor kemasi sohilga chiqa olmaydigan o‘zga daryo yuzaga keladi:

Yig‘lama, ey ko‘z, nedin sohilg‘a chiqmas kema deb
Kim, yoshing daryosidur har sorikim el ko‘z solur.

Yorning daryo oralab ketishi oshiq dilini alamga chulg‘agan bo‘lsa, kemaning sohilga chiqolmaslik xavfi uning jonini ham halqumiga keltiradi. Va bu holat endi telba shamol harakatidan to‘xtovsiz chayqaladigan daryoga qiyoslanadi.

Titrabon siymobdek ko‘nglum, yetar jon og‘zima,
Tund yel tahrikidin har damki daryo chayqalur.

Oshufta ko‘ngul qo‘zg‘alishi, ko‘z yoshining tinmay oqishi, yurakning simobday titrashi – bular oshiqning ichki ahvolini ko‘rsatuvchi harakat. Oshiq – harakat sohibi. U hamma narsaga qarshi tursa ham, ruh va ko‘ngil harakatiga hech monelik qilmaydi. Shuning u-n ko‘ngilni sabr qo‘liga topshirirgan bo‘lsa-da, bundan hech natija chiqmasligini u juda chiroyli tarzda ifodalaydi:

Sabr ko‘nglumda, ko‘ngul ul oyda, ul oy kemada,
Vahki, borib telmurib, ko‘z mungrayib, jonim qolur.

Ko‘ngil yorda. Yor kemada. Borib yor jamoliga termulgach ko‘zning mungrayib, jonning jonon b-n qolishini she’rxon hissiyot b-n xayoldan o‘tkazadi. Jon sohibasiga topshirilgach tiriklik nima bo‘ladi? Va uni tiriklik deyish mumkinmi? Navbatdagi bayt shu haqida:

Dam tutulg‘andin o‘lar yeldek yetibmen o‘lgali
Surmasun deb kemasin baskim nafaslar asralur.

Nafas chiqmagandan keyin o‘ladigan kishilarga o‘xshab qolish tabiiy, albatta. Ammo oshiq hali tirik – har qalay nafas olib turibdi. Qarangki, shu nafas ham unga xalaqit berayotir. Chunki, oshiq nafasi kemani ilgari siljitishi mumkin. Demak, nafas chiqmasligi, ya’ni nafasni ichga yutish joiz – toki kema o‘rnida sobit tursin.

Aql va fikr sohibi hayotdagi har bir voqea, hodisa yoki holatdan tegishli xulosa chiqaradi. Ishq-muhabbat daryosiga g‘arq bo‘lishni olaylik. Bu – oshiqlar u-n sharaf. Zero, hamma ham bunday ishga jur’at etolmaydi. Hayotda boshqa “daryo”lar ham ko‘p. M-n, savdo-sotiq daryosi. Unda kimlar suzmagan-u, kimlar cho‘kmagan? G‘azal qahramonining fikriga ko‘ra, o‘tar dunyo manfaati va foydasini o‘ylab zinhor-bazinhor “savdo bahrig‘a” kirmaslik lozim. Chunki kumush tangalarni yig‘ish, umr boyligini asrab qolishga kafolat berolmaydi.

Kirma savdo bahrig‘a olamdin istab sudkim,
Siym naqdi tushsa, lekin umr naqdi siyg‘alur.

She’r yozish – azobdan qutulish demak. Qalbidagi g‘am-g‘ussa va iztirobni shoir, asosan, she’r vositasida barataraf etadi. N. g‘azalning tili va majoziy tabiatiga muvofiq ravishda “g‘am zavraqi” – g‘am kemasiga diqqatni qaratadi:

G‘arq etar bahri fano g‘am zavraqin, ey piri dayr,
Ilgiga chunkim Navoiy boda kashtisin olur.

“Bahri fano” – fano daryosi, “g‘am zavraqi” – g‘am kemasi, “piri dayr” – butxona piri, “boda kishtisi” – qayiq shaklidagi qadah – bu iboralar zamiridagi ma’noni har kim o‘zicha anglab, har xil sharhlashi shubhasiz. Lekin fano haqiqati to‘g‘ri tushunilmasa, baytdan umumiy bir ma’no chiqarib bo‘lmaydi.

Abu Nasr Sarrojning ta’riflashicha, fano nafsning yomon sifatlardan xalos bo‘lishi va poklanishi. Nafsni poklash – ruhiy-ma’naviy hayotdagi mislsiz g‘alaba. Mana shu g‘alabaga erishilgach, dard, alam, hasrat atalmish hissiyotlar o‘z qiymatini boy beradi. “Fano daryosi g‘am kemasini g‘arq etar”, deyilishi xuddi shu o‘zgarishga ishorat bo‘lsa, qayiqmonand qadahni qo‘lga olish esa poklanish holidan shodlanishni ifodalaydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Ҳаққул И. Навоийга қайтиш. 1-4-китоблар. – Т., 2020; Ҳаққул И. Касби камол ўзни танишдир. – Т., 2021.*

I.H.

HARIMIY QALANDAR – turkiyzabon shoir. Samarqandlik. Tolibi ilmligi ham bor. N. “M.N.” tazkirasida uning ta’bidan namuna sifatida quyidagi turkiy matla’sini keltiradi:

Necha yig‘lay sham’dek hajringda, yorim, kechalar,
Ohkim, kuydurdi dog‘i intizorim kechalar.

Qabri Samarqandda.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

E.O.

HARRON – “S.I.” dostonida Doro pahlavonlaridan birining nomi. “Boshtin-ayog‘ temir” kiyim kiygan va mingan otiga ham o‘q o‘tmas temir yopinchiqlar tashlagan. Shayda o‘z qardoshi H.ni mag‘lub etgan. Boriq Barbariyga qarshi maydonga chiqadi. Doro b-n Iskandar o‘rtasidagi muhorabada u Doroning xiyonat qilib, Iskandar tomoniga o‘tib ketgan pahlavoni Boriqi Barbariydan yengiladi:

Ani razm eli sheri darron debon,
Otin anjuman ahli Harron debon.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

M.A.

HASAB – nasl-nasab yo‘li b-n emas, shaxsan o‘zi qozongan obro‘-e’tibor, sharafni bildiruvchi so‘z. N. bu so‘zni asarlari matnida mahorat b-n qo‘llagan. M-n: “M.N.”da berilgan Darveshbek haqidagi zikrda shunday yozadi: “Darveshbek – Mirzo Ali Idigu Temur o‘g‘lidur. Nasabi hud olam ahlig‘a zohirdur.

Hasabi Jonibiddin ham nasabga sharif bor edi. Hasab va nasab birla orosta yigit erdi”.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

B.R.

HASAN ALI JALOYIR (t.v.e.y.n.) – N. ning tog‘asi. XVI asr muarrixi Abdulmo‘minxonning “Tomm ut-tavorix” (“Mukammal tarixiy voqealar to‘plami”) asarida ma’lumot berilishicha, N. vafot etganida u eng yaqin kishilari qatorida janozaga bosh-qosh bo‘lgan. Abulqosim Bobur xizmatida beklik martabasiga ko‘tarilgan. Yodgor Muhammad Mirzo eshigida amir ul-umaro va sohibixtiyor bo‘lib, undan ulug‘ kishi yo‘q edi. Uning ikki o‘g‘li, bir qizi bo‘lib, uchalasi ham ta’bi nazm sohibi edi. Mir Husayn Jaloyir – Tufayliy, Muhammad Ali Jaloyir – Nisoriy taxallusi b-n ijod qilgan. Navoiyning ukasi Darvesh Alibekka tushgan qizi Ofoqbegim ham forsiyda go‘zal she’rlar yozgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ҳайитметов А. Ҳаётбахш чашма. – Т., 1974; Абдуқодиров А. Амир Алишер Навоий. – Хўжанд, 2013; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 2002.*

E.O.

HASANOV Botirbek (1940–2008) – f.f. d-ri. 1980-y. “Alisher Navoiyning “Sab’atu abhur lug‘ati” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasi yoqlagan. 1981-y. ushbu dissertatsiya monografiya shaklida chop etilgan. Olim ishda Turkiyaning Oyoso‘fiyo kutubxonasidagi qo‘lyozmaga suyangan. Monografiyada N.ga nisbat berilgan “Sab’at abhur” (“Yetti dengiz”)ning leksikografik tamoyillari o‘rganilgan.

Olim 1990-y. “Alisher Navoiy asarlariga tuzilgan qo‘lyozma lug‘atlar” mavzusida doktorlik dissertatsiyasi yoqlagan. Ishda “Abushqa”, “Badoye’ ul-lug‘at”, “Sangloh”, “Kitobi lug‘ati atrokiya” lug‘atlarining o‘ziga xos leksikografik xususiyatlari ko‘rsatilgan.

Ad.: *Алишер Навоийнинг “Сабъат абҳур” луғати. – Т., 1981.*

E.U.

HASANOV Saidbek – (28.09.1945 – 14.09.2019, Toshkent) –sharqshunos, matnshunos olim, f.f. d-ri (1990). Xalqaro Muzeylar tashkiloti “IKOM” a’zosi bo‘lgan, “Do‘stlik” ordeni sohibi (2003), Xalqaro Babtin mukofoti (Quvayt Davlati) va Bobur Xalqaro mukofoti laureati (2004).

H.S. ilmiy tadqiqotlarida N. ijodi, “X.” dostonlari alohida o‘rin tutadi. U N.ning “S.S.” dostoni yuzasidan “Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” asarining qiyosiy-tekstologik tadqiqi” nomli doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan (1990).

H.S.ning “Роман о Бахраме” (Bahromnoma) (1989-y.), “Navoiyning yetti tuhfasi” (1991), monografiyalari n.shunoslikka munosib hissa bo‘lib qo‘shilgan. Olimning “Роман о Бахраме” (Bahromnoma) kitobi N.ning “S.S.” dostonini tadqiqiga bag‘ishlangan. Unda qiyosiy aspektda Nizomiy, Xusrav Dehlaviy dostonlariga ham murojaat qilingan. Ayniqsa, “yetti” raqami va ranglar simvolikasi b-n bog‘liq masala va muammo batafsil tadqiq qilingan.

H.S. “Navoiyning yetti tuhfasi” kitobida Firdavsiy, Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, N., Ashraf Marog‘iy bahromnomalarining syujeti, kompozitsiyasi, Bahrom Go‘r obrazining evolyutsion jarayoni, dostonlarga kirgan hikoyat, rivoyatlarning genezisi, har bir ijodkorning yuksak badiiy mahorati, dostonlarga xos o‘ziga xoslik va mushtaraklik, milliy va umumbashariy g‘oyalarning poetik talqini tahlil qilingan. Mazkur mavzuning

Sharq va G‘arbda keng tarqalganining sabab, oqibati yaxshi ochiqlangan. Umuman, asarda har bir ijodkorning adabiyot tarixida tutgan o‘rni belgilangan.

H.S. Bobur va boburiylar haqida ko‘plab tadqiqotlar muallifi hisoblanadi. U “Mubayyin”, “Boburnoma”, “Volidiya”, Bobur “Devon”i yuzasidan olib borgan ilmiy tadqiqotlarida ham qiyosiy aspektda N. asarlariga murojaat qilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Ҳасанов С. Навоийнинг етти туҳфаси. – Т., 1991.*

B.R.

HASANXOJA NISORIY – (taxallusi Nisoriy; (1516–1597, – Buxoro) XVI asrda yashab ijod etgan shoir, temuriylar davrining taniqli adibi, sadri, shayxulislomi va diplomati Poshshohxoja Abdulvahobxojaning o‘g‘li.

H.N boshlang‘ich ta’limni otasi qoshida va Buxoro madrasalarida olgan. 1545–1550-yy. da Buxoroda Abdulazizxon, 1550–1554-yy.da Miyonkol hokimlari Rustam Sulton va 1554–1566-yy. Abdulquddus Sulton huzurida sadrlik lavozimini boshqargan. Shundan so‘ng umrining oxirigacha Buxoroda maktabdorlik b-n shug‘ullangan.

H.N.ga shuhrat ketirgan asari “Muzakkiri ahbob” (“Do‘stlar yodnomasi”) tazkirasidir. Kitob Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro” va N.ning “M.N.” tazkiralari uslubi va an’analariga ergashib yozilgan.

H.N. tazkirada Sulton Husayn Boyqaro, Abdurahmon Jomiy, N., Husayn Voiz Koshifiy, Bobur podshoh kabi daho so‘z san’atkorlari to‘g‘risida ishonchli ma’lumotlar, noyob lavhalar, hayotiy va ibratli hikoyatlar keltirganidan xabardor bo‘lamiz. M-n, H.N. N. haqida bitgan muhim xabarlardan biri, bu sherozlik shoir Ahliy Sheroziyning N.ga bag‘ishlab “Qasidayi masnu” asarini yozgani to‘g‘risidadir. Mazkur qasida taniqli n.shunos Sh.Sirojiddinov tomonidan maxsus o‘rganilgan va nashr qilingan.

Tazkirani fors tilidan o‘zbek tiliga taniqli sharqshunos olim va tarjimon Ismoil Bekjon mahorat b-n tarjima qilgan va nashrga tayyorlagan hamda tazkirani har tomonlama keng va chuqur o‘rganib, uni qomusiy asar sifatida yuksak baholagan. Muhimi, u tadqiqot va tarjima jarayonida to‘plagan fikr-xulosalarini jamlab, kitobga “Muzakkiri ahbob” (“Do‘stlar yodnomasi”) va uning muallifi H.N. haqida” nomli salmoqli so‘zboshi yozgan, asar so‘nggida esa 80 sahifadan ortiq izohlarni ilova qilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ҳасанхожа Нисорий. Музаккири аҳбоб.(Форс тилидан таржима, сўзбоши ва изоҳлари муаллифи И.Бекжон.) – Т., 1993; Мутрибий Самарқандий. Тазкират уш-шуаро. – Т.: 2013; Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий манбаларининг қиёсий-типологик текстологик таҳлили. – Т., 2011.*

B.R.

HASBI HOL – o‘z ahvolini bayon qilish, o‘z turmushining qandayligidan hisob berish. H.H. Sharq xalqlari she’riyatida, xususan, o‘tmish fors-tojik, ozarbayjon, o‘zbek adabiyotlarida avtobiografik she’r, avtobiografik xarakterdagi asar ma’nosini bildiradi. Bu atama N. asarlarida ham uchraydi. M-n, N. “M.N.” tazkirasida Mavlono Jabuliy degan shoir haqida so‘zlar ekan, uning “dumog‘ida biror nima parishonlig‘ bor va tavrida lavandlig‘, ul muddaosi yaxshi muyassar bo‘lmas”, – deb yozadi. Buni isbotlash u-n N. Jabuliyning o‘z she’rlaridan bir bayt misol keltiradi. Bunda sevgilisining ishqiga berilib, o‘z uyiga qanday borish yo‘lini ham unutgan majnun-oshiq tasvirlangan. N. bu baytda uning o‘z ahvoli – xotirparishonligi, lavandligi aks etgan, – demoqchi bo‘ladi: “Bu matla’ aningdur. (Unda) o‘z hasbi holi voqe’ bo‘lubtur ham desa bo‘lurkim:

Xona, ey oqil, chi kor oyad mani devonaro?
Chun namedonam mani devona rohi xonaro.

Tarj.: Ey aql egasi, men devonaga uyning nima keragi bor? Axir, men u uyga borish yo‘lini bilmayman-ku.

N.ning o‘z devonlari va dostonlarida ham avtobiografik xarakterga ega bo‘lgan she’rlar, she’riy parchalar ko‘p. M-n, shoir “S.I.” dostonidagi bir lirik chekinishda mug‘anniyga murojaat etib, “Navo”, “Turki Hijoz” kabi klassik kuylarni chalishni hamda uning “hasbi hol”ini ifodalagan she’rlaridan qo‘shiqlar aytishni iltimos qiladi:

Mug‘anniy, kelu chert turkona soz,
Maqomi “Navo”, yo‘qsa “Turki Hijoz”.

Navoiyning ash’oridin necha bayt,
Mening hasbi holim topib turkiy ayt!

Binobarin, she’riyatda hasbi hol an’anasiga amal qilish va uni rivojlantirish adabiyotga hayotiylik bag‘ishlagan, uni mazmunan boyitgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Ҳайитметов А., Раҳимов Ж. Алишер Навоий “Хамса”сида ҳасби ҳол анъаналари. – Т., 1988.*

Ab.H.

HAFIF BAHRI – (ar. yengil) turkiy she’riyatda keng qo‘llangan o‘lchov turlaridan biri. H.B.ning asosini birinchi va uchinchi ruknda foilotun, ikkinchi ruknda mustaf’ilun asllarining ketma-ket takrori (foilotun mustaf’ilun foilotun – V – – / – – V – / – V – –) tashkil qiladi. O‘zbek mumtoz she’riyatida mazkur bahrning asosan musaddas shaklidan foydalanilgan. Hafifi musaddasi solim o‘lchovining ruknlari va chizmasi foilotun mafoiylun foilotun (– V – – / V – – – / – V – –) tarzidadir. H.B.ga xos xususiyatlardan biri ko‘pvaznlilik bo‘lib, unda yozilgan she’riy asarlarda sakkiz vazn almashinib qo‘llaniladi. Ushbu sakkiz vaznni ikki shahobcha: “Solimi maxbun” va “Maxbun shahobchasi”ga bo‘lish mumkin. “Solimi maxbun” shahobchasi quyidagi vaznlarni o‘z ichiga oladi: 1. Hafifi musaddasi solimi maxbuni mahzuf. 2. Hafifi musaddasi solimi maxbuni maqsur. 3. Hafifi musaddasi solimi maxbuni maqtu’. 4. Hafifi musaddasi solimi maxbuni maqgu’i musabbag‘.

“Maxbun shahobchasi”ga 1. Hafifi musaddasi maxbuni mahzuf. 2. Hafifi musaddasi maxbuni maqsur. 3. Hafifi musaddasi maxbuni maqtu’. 4. Hafifi musaddasi maxbuni maqtu’i musabbag‘ vaznlari kiradi. Mazkur vaznlar bir biriga yaqin bo‘lib, “Solimi maxbun” shahobchasining birinchi va ikkinchi ruknlar foilotun mafoilun, “Maxbun shahobchasi”ning birinchi va ikkinchi ruknlari failotun mafoilun tarzida takrorlanib, har sakkiz vaznning oxirgi, uchinchi ruknlarigina foilun, failon, fa’lun, fa’lon tarzida farqlanadi.

N. aruz vazniga bag‘ishlangan asari “M.A”da: *“Uchunchi doiraning to‘rtunchi bahri hafifdur va bu bahrning matbu’ avzonida ajam shuarosi masnaviylar bitibdurlar”,* – deydi hamda H.B.ning besh vaznini misollar b-n sanab o‘tadi. Bular: Hafifi (musaddasi) maxbun, hafifi (musaddasi) maxbuni solimi sadr, hafifi maxbuni maqtui musabba’, hafifi maxbuni maqtu’, hafifi maxbuni musha’as. Zahiriddin Muhammad Bobur H.B.ning 22 vazni borligini ta’kidlaydi. O‘zbek she’riyatida esa ushbu bahrning sakkiz vaznidan keng foydalanilgan. Xususan, Atoiy, Lutfiy, Xofiz Xorazmiylar ijodiga xos ayrim fard va g‘azallarda mazkur bahr o‘lchovlari asosida yaratilgan. N.ning 27 g‘azal, 27 qit’a, 5 fard, 3 muammosi hamda “S.S.” dostoni ham ushbu o‘lchovda bitilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; А. Ҳожиаҳмедов. Ўзбек арузи луғати. – Т., 1998; Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – T., 2019.*

E.Q.

HAFT AVRANG – yetti taxt yoki Katta ayiq yulduzlar turkumi, Abdurahmon Jomiy asari. Jomiy Nizomiy va Xusrav Dehlaviylar izidan borib, “Xamsa” yaratadi, keyinchalik esa besh doston qatoriga yana ikki dostonni kiritadi va yetti kitobdan iborat dostonlariga “H.A.” deb nom

beradi. “X.M”da N. murshidi Jomiy asarlarini sanar ekan, “H.A”ga alohida to‘xtaladi: “...yana: “Haft avrang”ki mushtamildur yetti kitobqa; avval: “Silsilat uz-zahhab”ki, uch daftardur; ikkinchi: “Salomon va Absol”; uchunchi: “Tuhfat ul-ahror”; to‘rtunchi: “Subhat ul-abror”; beshinchi: “Yusuf va Zulayho” kim “Oshiq va ma’shuq”qa mavsumdur; oltinchi: “Layli va Majnun”; yettinchi: “Xiradnomai Iskandariy”. Mazkur asar haqida yana shunday deydi: “Alar “Haft avrang”din – ham har lafzi yetti iqlimqa sarmoya va har harfi yetti kavkabqa piroyadur – “Subhat ul-ahror”kim, alarning muxtaraidurkim, ne ul bahrda masnaviy aytibdurlar va ne ul zobita va ado bila manzum kitob tartib beribdurlar, xatmi kitob va xotimayi xitobda chun ul ma’shuqai zebo va muxaddarai olamoroni jilva berib, qabuli xotir tamannosi va nazari qabul istid’osi qilibturlar...”. N. “H.A.”-ning har bir dostoni xususida alohida ma’lumot beradi. M-n: “Haft avrang” kitobidin “Yusuf va Zulayxo” dostonikim, “Oshiq va ma’shuq”qa mavsumdur va ul kitob naziri Yusuf husni va Zulayxo ishqidek ma’dum, oxirida podshoh duosi zaylida bu nav’ bandanavozliq qilibturlarkim”.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамсат ул-мутаҳаййирин. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011.*

Z.R.

HAQIQAT – ar. – 1. Chinlik, rostlik, to‘g‘rilik; chin, to‘g‘ri gap; chindan ham bo‘lgan, voqelikka mos holat, narsa. 2. Ma’lum tartib-qoida, qonunlarga mos ish, xatti-harakat. 3. Kishi ongida voqelikning, obyektiv borliqning haqqoniy, to‘g‘ri aks etishi. 4. Rostligi fanniy yo‘l b-n isbotlangan, tajribadan sinalgan holat, hukm, fikr. 5.Tasavvufda Ilohiyotni (Xudoning borligini) o‘z-o‘zidan anglashiladigan, isbot talab qilmaydigan, shubhadan tashqari, aniq bir hodisa deb tushunish; Mutlaq H. – Alloh; chindan mavjud bo‘lgan – narsa, asl mohiyat; Allohni bilish; borliq olam sirlarini to‘g‘ri va teran idrok aylash. H. – shariatning botinidir. Shuning u-n H. tasavvuf ma’nosida ham keng qo‘llanilgan.

N. asarlarida H.ning yuqorida keltirilgan ma’nolarining, deyarli, hammasi uchraydi. Ulug‘ shoir majoz yo‘li, uslubi b-n aytilgan fikrlarda H. yotganligini o‘zining va boshqalarning asarlari orqali ko‘rsatib beradi. U “N.M.”da Nizomiy Ganjaviy ijodi haqida to‘xtalar ekan, uning “Panj Ganj” atalgan beshta dostonini tilga oladi va bu dostonlar asosan nomini tarixda qoldirishni niyat qilgan podsholar da’vati b-n yozilganini qayd etib, asarning til va uslubi haqida shunday deydi: “...va ul nazmlar agarchi zohir yuzidin afsonadur, ammo haqiqat yuzidin haqoyiq kashfi va maorif bayonig‘a bahonadur”. Shuningdek, Jomiy asarlari haqida gapirganda ham majoziy yo‘l b-n H.ga ishora qilingani aytiladi: “...chun alarg‘a bizzot mashrabi tavhid voqe’ bo‘lg‘andur, haqiqat jamolin majoz muzohiri mushohadasida muoyana ko‘rub, beixtiyorlig‘lar dast berur erkandur”. N. “M.Q.” asarida ayrim guruh shoirlar haqida ma’lumot berar ekan, “Haqiqat asrorig‘a majoz tariqin maxlut” qilib (aralashtirib) “kalomlarin bu uslubda marbut” etganliklarini aytib o‘tadi. Holoti Pahlavon Muhammadda ham shunga yaqin jumlalarni o‘qiymiz: “...hol ulkim, Sayyid Nasimiyning nazmi zohir yuzidin majoz tariqig‘a shomildur va ma’ni yuzidin haqiqat tariqig‘a...”.

Umuman, N. majoz vositasi b-n yozilgan asarlarda H. ifoda topganini o‘zining ham bir qator nazmiy va nasriy asarlarida eslatib o‘tkan: Jumladan:

Zohido, bu ishqdin man’ aylama oshiqnikim,
Gar sen idrok aylasang, ayni haqiqatdur majoz.
Gar Navoiy yig‘lasa, ishqing majoziydur dema
Kim, nazar pok aylagach, ayni Haqiqatdur majoz

Ayrim so‘fiylarga ko‘ra, H. bu ilmdir. Ya’ni ilm H.ni ochib berishi va H.dan iborat bo‘lishi lozimligini inobatga olib, H.ni ilmga nisbat berganlar. Buning yorqin bir misoli “N.M.”da kelgan Abubakr Tohir Abhariyning so‘zidurkim, undan so‘rabdilar: “...Haqiqat nedur? Dedikim, barchasi ilmdur. Dedilar: ilm nedur? Dedikim, barchasi haqiqatdur”.

Ulug‘ shoir “N.M.”da Shayx Avhaduddin Homid Kirmoniyning bir qit’asini keltiradi. Unda haqiqiy Naqqosh sifatida Alloh taoloning butun koinotni yaratgani va barcha narsalar – naqshlar faqat uning qudrati b-n vujudga kelgani, mavjudotning yaralishiga boshqa biror zot aralashmagani, Oliy H. – yolg‘iz Alloh ekanligi ta’kidlanadi: “Naqqoshning fitnasi o‘z naqshida, o‘rtada bir kishi yo‘q, xotirjam bo‘l! Vujud Haqiqati haqida o‘zi gapirdi, o‘zi eshitdi, shu sababdan o‘zi ko‘rsatdi, o‘zi ko‘rdi. Allohga qasamki, Allohdan boshqa Haqiqat mavjud emasligiga ishonish lozim”.

“Ahli Haqiqat” iborasi, asosan, tasavvuf mansublarini, so‘fiylar toifasini anglatadi:

Va lek ahli haqiqatqa may erur vahdat,
G‘am ushbu kasrat erurkim, qilur ko‘ngulga xutur.

H. may, (tavhid mayi) ma’nosida ham keladi. N. “M.N.”da temuriylardan Bobur Mirzoning axloqi va ijodiga qisqa ta’rif berib, uning bir ruboiysini keltiradiki, unda jom shariatga, boda H.ga qiyos qilinadi:

Chun boda-vu jomro baham payvasti,
Medon ba yaqinki, rindi bolo dasti.

Jomast shariat-u, haqiqat boda
Chun jom shikasti, ba yaqin badmasti.

Tarj.: May b-n qadahni birlashtirganing u-n, aniq bilgilki, qo‘li baland rindsan. Qadah – shariatdir, may – H.dir. Qadahni sindirganingdan ayonki, badmastdirsan.

N. H. so‘zi orqali H.bin, ahli H., haqoyiq, H. sari, H. kishvari, H. rasmi, H. sirri, tariqat H.i asrori, g‘avsi H. H. ahli imomi kabi so‘z birikmalari yasab, ularni turli ma’nolarda qo‘llaydi. U bir qit’asida yozishicha:

Chu Xayrobod bandin o‘zlugum birla yasab erdim,
Meni andin xalos etti inoyat aylabon shohe.
Ne bo‘lg‘ay o‘zlukumning bandidin dog‘i xalos etsa,
Haqiqat kishvari sari hidoyat aylab ogohe.

Qit’a mazmunidan anglashilmoqdaki, N. “Xayrobod bandi”ni quradi va podshoh keyinchalik inoyat qilib, uni bu band ishlaridan ozod etadi. U bu voqeadan falsafiy xulosa qilib: “Koshki, shoh o‘zlik bandidan ham ozod qilib, meni “H. kishvari” tomonga yo‘l ko‘rsatib qo‘ysaydi”, – deydi. Shoir bu o‘rinda “H. kishvari” deb majozan suluk yo‘lini nazarda tutmoqda.

Tasavvufda kashf-u karomat, sirlar odatda pinhon tutiladi. Uni oshkor qilgan undan bebahra qoladi. Ulug‘ shoir bu masalada ham kitobxonlarini ogohlantiradi. H. sirrini xalqdan pinhon tutish lozimligini uqtiradi:

Ichingda sirri haqiqat yoshuray der esang,
Ulustin ul guhari bebahoni pinhon yut.

Shuningdek, N. Jomiyning murshidi Mavlono Sa’diddin Koshg‘ariyni “qutbi tariqat va g‘avsi haqiqat” sifatlari b-n tilga olsa, Shayx Boyazid Bistomiyni “sultonul-orifin, Haqiqat ahli imomi” unvonlari b-n zikr qiladi. Haqoiq (H.lar) ba’zan H.lar, asoslar ya’ni o‘z ma’nosida ham istifoda etiladi.

Chun javohir haqoyiqin bildi,
Sirridin bu sifat xabar qildi.

Ulug‘ shoir ayrim voqealar yoki hodisalar zamirida soxta H.lar ham borligini eslatib qo‘ygan. U “M.Q.” asarida “ma’no ahlining haqiqat”ni ma’ni (ma’no, asl H.) atasa, “surat ahlining haqiqat”ni “bema’ni” soxta hisoblaydi. Jumlalarni tardi aks san’ati vositasida ta’sirli va ma’noli qilib ifodalaydi. Ma’no ahli – eranlarning H.ga aylangan hollari va surat ahlining soxta iddaolari qarama-qarshi qo‘yiladi. Shu yo‘l b-n asl H. e’tirof etiladi: “Ma’ni ahli haqiqati maxfiy va surat ahlining haqiqati da’vi va da’vi haqiqatda bema’ni. Eranlar hollari suratin yoshurubturlar va malomat suratida na’li bozguna urubturlar va zohirlari binosin buzubturlar va botinlari asosin tuzubturlar”.

Yuqoridagi misollardan shu narsa ayon bo‘ladiki, N. ulug‘ san’atkor shoir sifatida H. so‘zining majoziy va haqiqiy ma’nolarini teran idrok etib, asarlarida ularni mahorat b-n qo‘llagan.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4-жилдлик, 4-жилд. – Т., 1984; Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2008.*

S.R.

HAQQULOV Ibrohim (28.03.1949–28.06.2022, Buxoro) – adabiyotshunos, n.shunos olim, tarjimon. F.f. d-ri (1995), prof. (2020). Buxoro viloyatining Shofirkon tumanida ziyoli xonadonida tug‘ilgan. O‘rta ma’lumotni tuman markazidagi maktabda olib, bir yil Abdulla Qodiriy nomli maktabda muallimlik qildi. 1966–1970-yy.da Buxoro DPI (hozirgi BuxDU) O‘zbek filologiyasi fakultetida tahsil olgan. 1970–1972-yy.da “Shofirkon haqiqati” gazetasida faol mehnat faloliyatini olib borgan. Uning “Daryo kabi hamisha uyg‘oq...”, “Qalbi daryo shoir”, “Mavlono Ashraf”, “Shuhratli adib”, “E’zozli do‘stlik”, “Dovruqdor baxshi” kabi ilk adabiy maqolalari xuddi shu yillarda yozilib, tuman gazetasida bosilib chiqdi va keng jamoatchilik e’tirofiga muvaffaq bo‘ldi. Ilmga bo‘lgan cheksiz muhabbati tufayli 1973-y. dan o‘zining butun faoliyatini O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti (hozirgi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti) b-n bog‘ladi – bu yerda u oddiy laborantlikdan O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi bo‘limi mudirligigacha bo‘lgan ilmiy-ijodiy yo‘lni bosib o‘tdi. 1975-y.da u “O‘zbek mumtoz adabiyotida ruboiy” mavzusida nomzodlik, 1995-y.da “O‘zbek tasavvuf she’riyatining shakllanishi va taraqqiyoti” mavzusida doktorlik dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qildi.

“O‘zbek adabiyotida ruboiy” (1981) nomli ilk monografiyasi bilanoq ilmga o‘ziga xos yo‘li, mustaqil fikriga ega bo‘lgan qat’iyatli olim kirib kelganligini amalda isbotlagan H.I. o‘tgan yillar mobaynida iste’dodining yangidan-yangi qirralarini to‘la namoyon etib, qiziqish doirasi va dunyoqarashi keng adabiyotshunos sifatida ham yuksak marralarni zabt etdi − bir paytning o‘zida ham mumtoz so‘z san’ati, ham tasavvuf she’riyati, ham zamonaviy adabiyot, qolaversa, adabiyot nazariyasi va matnshunoslik masalalari b-n faol shug‘ullanib, “Uvaysiy she’riyati” (1982), “Badiiy so‘z shukuhi” (1987), “Zanjirband sher qoshida” (1989, 2021 (qayta to‘ldirilgan ikkinchi nashri), “She’riyat − ruhiy munosabat” (1989), “Abadiyat farzandlari” (1990), “Kamol et kasbkim...” (1991), “Tasavvuf va she’riyat” (1991), “G‘azal gulshani” (Adabiy suhbatlar, 1991), “Xoja Orif Mohitobon” (1996), “Irfon va idrok” (1998), “Tasavvuf saboqlari” (2000), “Ahmad Yassaviy” (2001), “Kim nimaga tayanadi?” (2006), “E’tiqod va ijod” (2007), “Navoiyga qaytish” (1-k, 2007; 2-k, 2011; 3-k, 2015, 4-k, 2020; 5-k, 2024), “Abdulla Qahhor jasorati” (2007), “Taqdir va tafakkur” (2007), “Meros va mohiyat” (2008), “Ijod iqlimi” (2009), “So‘zdagi o‘zlik” (2013), “Shaxsiyat va she’riyat” (2014), “Kasbi kamol o‘zni tanishdir” (2021) kabi mumtoz va zamonaviy adabiyotning dolzarb masalalariga bag‘ishlangan 20 dan ziyod kitoblar, 300 dan ziyod ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar e’lon qildi. Qator maqolalari rus, turk, ozarbayjon, uyg‘ur va tojik tillariga tarjima qilinib, Moskva, Istanbul, Boku, Urumchi va Dushanbedagi nufuzli nashrlarda bosilib chiqdi. Moskvada chiqqan ikki jildlik “O‘zbek adabiyoti tarixi”-ning mualliflaridan biri bo‘ldi. N.ning 20 jildlik Mukammal asarlar to‘plami (1987–2003) va 10 jildlik To‘la asarlar to‘plamini (2011) nashrga tayyorlashda faol ishtirok etdi.

H.I. har bir maqolasida mumtoz she’riyatimiz namoyandalari ijodining asl mohiyatini teran tushuntirib, ularning yangidan-yangi qirralarini inkishof eta oldi. Shuning u-n zabardast olimning maqolalariini o‘quvchilar intiqlik va orziqish b-n kutishgan, uning, deyarli, har bir kitobi adabiy jarayonda alohida voqea bo‘lgan. H.I.ning nomzodlik dissertatsiyasi asosida dunyoga kelgan “O‘zbek adabiyotida ruboiy” (1981) nomli mo-

nografiyasiyoq Sharq adabiyotida mashhur ruboiy janrining tarixi, genezisi va poetikasiga bag‘ishlangan eng mukammal, nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega tadqiqot sifatida baholangan edi. Kitobda turkiy she’riyatda ruboiyning yuzaga kelish tamoyillari o‘zbek xalqining ma’naviy qadriyatlari, madaniy turmush tarziga uzviy bog‘liqlikda yorqin misollar b-n isbotlangani, xususan, N. ruboiylarining mumtoz adabiyotimizda muhim bosqich bo‘lgani atroflicha yoritilgani diqqatga sazovor jihatdir. Bolalarga mo‘ljallab yozilgan bo‘lsa-da, aslida, kattalar u-n ham mo‘ljallangan “Zanjirband sher qoshida” (1989) kitobi N. badiiy olamiga kirish u-n o‘ziga xos ochqich vazifasini bajarib, qo‘lma-qo‘l bo‘lib o‘qilgani ma’lum. Shu sababli, 2021-y.da mazkur kitobning ikkinchi, ya’ni qayta nashri amlga oshirildi. “Tasavvuf va she’riyat” (1981) kitobi ham Sharq ijtimoiy-falsafiy, adabiy-ma’naviy tafakkur taraqqiyotida muhim o‘rin tutgan tasavvuf ta’limotning kelib chiqishi va rivojlanish yo‘llari, ijtimoy hayotga, madaniyat va adabiyotga ta’siri, irfoniy she’riyat, uning obrazlar olami va istilohlari xususida adabiyotshunosligimizda ilk bor keng fikr-mushohada yuritilgan, yangidan-yangi ma’lumotlar, teran va ohorli tahlillar hamda nozik kuzatishlarga nihoyatda boy yirik tadqiqot sifatida adabiy va ilmiy jamoatchilikning, keng o‘quvchilar ommasining diqqat-e’tiborini o‘ziga tortdi. Ushbu kitob O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Ahmad Yassaviy nomidagi xalqaro mukofotiga sazovor bo‘ldi (1993).

H.I. tadqiqotlarining yaqqol ajralib turadigan jihatlaridan yana biri shundaki, u aksariyat shoirlar ijodini N.ga qiyosan tekshiradi – N. go‘yo shoirning shoirlik mahorati, adabiyotda tutgan o‘rni, asarlari badiiyati va umrboqiyligini o‘lchaydigan o‘ziga xos mezondir. Bu b-n kifoyalanib qolmay, u o‘zbek adabiyoti tarixini, xususan, undagi mahorat masalalarini faqat shu adabiyot doirasida emas, balki jahon adabiyoti kontekstida, adabiy aloqalar va o‘zaro ta’sir yo‘nalishida, o‘rni kelganda, zamonaviy adabiyot b-n yonma-yon qo‘yib tekshiradi, adabiy merosimizga umuminsoniy boylik sifatida qarab, izchil ravishda uning tarixiy va hayotiy haqiqatlarga, go‘zallikka yo‘l ochuvchi mayoqlaridan biri ekanini isbotlashga intiladi.

H.I. matnshunos sifatida ham e’tiborga sazovor ishlarni amalga oshirdi. U birinchi bo‘lib taniqli turk olimi Kamol Eraslan 1983-y.da Turkiyada chop etgan “Devoni hikmatdan sochmalar” to‘plami hamda Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik markazi qo‘lyozmalar xazinasida saqlanayotgan Ahmad Yassaviy hikmatlari nusxalari asosida ulug‘ tariqat piri va mutasavvif shoirning “Hikmatlar” devonini (1991) nashr ettirdiki, bu kitob adabiy-madaniy hayotimizdagi eng unutilmas voqealardan biri bo‘ldi: misli ko‘rilmagan adadda − 300 ming nusxada bosilgan Yassaviy hikmatlari juda qisqa muddatda qo‘lma-qo‘l bo‘lib ketdi. Bu nashr 1995-y.da Istanbulda ham bosilib chiqdi. 2006-y.da u yassaviyshunos shogirdi Nodirxon Hasan b-n hamkorlikda uning tuzatilgan va to‘ldirilgan yangi nashrini e’lon qildi. Shuningdek, u S.Rafiddin b-n birgalikda Sulaymon Boqirg‘oniyning “Boqirg‘on kitobi” (1991) hamda “Me’rojnoma” (1995) asarlarini nashrga tayyorladi. Aytish lozimki, H.I. nafaqat yurtimiz, balki xorijda ham yassaviyshunoslik ilmining jadal rivojlanishiga munosib hissa qo‘shgan tashabbuskor olimdir.

H.I. dastlab turk tilidan bektoshiylik tariqatining asoschisi Xoja Bektosh Valiyning “Maqolot”i, keyin shogirdi A.Bektosh b-n hamkorlikda “Shayxi valiytarosh” Najmiddin Kubroning “Al-usul al-ash’ara” (“Tasavvufning o‘n asosi”), “Risolai ilal hoim” (“Malomat qiluvchining malomatidan qo‘rquvchi oshiq risolasi”), “Favoyih ul-jamol va favotih ul-jalol” (“Jamol xushbo‘yliklari va Jalol kashfi”) risolalarini so‘zboshi va izohlar hamda tasavvuf istilohlari lug‘ati b-n birga “Tasavvufiy hayot” nomi ostida chop ettirdi.

H.I. 50 dan ziyod suhbatlari b-n suhbat janrini ham yangi bosqichga ko‘tardi. U o‘zbek adabiyoti va adabiyotshunosligining taniqli namoyandalari b-n dolzarb mavzularda qiziqarli suhbatlar uyushtirgan bo‘lsa, o‘z navbatida, adabi-

yotshunos va jurnalistlar u b-n mumtoz adabiyot va tasavvufni o‘rganish muammolari, zamonaviy adabiyotning dolzarb masalalari, N., Zahiriddin Muhammad Bobur, Oybek kabi mutafakkir adiblar hayoti va ijodining rang-barang qirralari, milliy musiqa muammolari yuzasidan ko‘plab suhbatlar uyushtirishdi. H.I.ning suhbat janri namunalari hayot va adabiyotning yorqin ko‘zg‘usiki, ularda Haq va haqiqat, o‘tmish va kelajak, hayot va o‘lim, yaxshilik va yomonlik kabi qator masalalar adabiyot ilmining yetuk bilimdoni nuqtayi nazaridan o‘ta ta’sirli yoritilgan. Olim bu suhbatlar asosida bir necha to‘plamlar tartib berdi: “G‘azal gulshani” (1991), “Kim nimaga tayanadi?” (2006), “E’tiqod va ijod” (2007).

Sharhnavislik – olim ijodining alohida yo‘nalishini tashkil etadi. U Atoiy, N., Bobur, Uvaysiy, Furqat kabi mumtoz so‘z san’atkorlarining ko‘plab g‘azal, ruboiy, qit’a va fardlarini sharhlagan. N. qit’alari sharhini hatto “Kamol et kasbkim” (1991) nomi b-n alohida kitob holida e’lon qildi. “Navoiyga qaytish” (2007) kitobidan esa ulug‘ shoirning 20 dan ortiq she’rlari sharhlangan maqolalari o‘rin olgan. N. she’riyatining g‘azal, qit’a, ruoiy va shohbaytlar tahliliga bag‘ishlangan “Ishq va hayrat olami” (2016, E.Ochilov hammuallifligida) kitobi esa sharhshunoslikdagi yorqin sahifa sifatida qaraladi. U Qur’oni Karim, Hadisi sharif, diniy-tasavvufiy asarlar, tazkira va manoqiblar, tarixiy, falsafiy, adabiy tadqiqotlar, xalq og‘zaki ijodi kabi keng ko‘lamdagi adabiyotlar, badiiy san’atlar va tasavvuf istilohlariga tayangan holda katta nazariy tayyorgarlik asosida sharhga kirishadi va mumtoz asarlarning mazmun-mohiyatini har tomonlama keng va chuqur ochib beradi.

H.I. to‘plovchilik faoliyati ham diqqatga sazovor. U N. shohbaytlarini saralab, ularni sharhlari b-n ikki kitob qildi. Uning 1-jildi “Xazoyin ul-maoniy”dan tanlangan shohbaytlarni (2007; 2015), 2-jildi “Xamsa” va “Lison ut-tayr”dan tanlangan shohbaytlarni (2015) o‘z ichiga oladi.

H.I. 2022-y.da vafot etgan.

Ad.: *Ўзбек адабиётида рубоий. – T., 1981; Шеърият – руҳий муносабат. – T., 1989; Абадият фарзандлари. –T. 1990; Тасаввуф ва шеърият. – T., 1991; Ирфон ва иброк. – T., 1998; Навоийга қайтиш. 1-к. –T., 2007; 2-к, 2011; 3-к. – T., 2015; Тақдир ва тафаккур. T., 2007; Мерос ва моҳият. – T., 2008; Ижод иқлими. – T., 2009. Мирзаев. – T., Очилов Э. Истеъдод ва масъуллик // ЎТА, 2009, № 3. Очилов Э. Устоз сабоқлари // Ҳаққул И. Мушоҳада ёғдуси. 1 китоб. – T., 2009; Haqqul I. Mushohada yog'dusi. 3-kitob. – T., 2024.*

M.A., E.O.

HIDOYATOV Abror (1900–1958, Toshkent) – O‘zbekiston xalq artisti. 1919-y.dan Mannon Uyg‘ur boshchilik qilgan “Turon” truppasida ishlagan. 1927–1935-yy.da milliy va tarjima asarlarda bir turkum obrazlar yaratdi. Sarimsoq (Komil Yashin, “Yondiramiz”), Rustam (U.Ismoilov, “Rustam”), Shopur (Xurshid, “Farhod va Shirin”) va boshqalar A.H.ning aktyorlik mahorati Hamlet (Shekspir, “Hamlet”), Otello (Shekspir, “Otello”), G‘ofur (Hamza, “Boy ila xizmatchi”) obrazlarida yorqin namoyon bo‘ldi. Uning o‘zbek tarixiy dramalarida yaratgan Muqanna (H.Olimjon, “Muqanna”), Temur Malik (M.Shayxzoda, “Jaloliddin”), Navoiy (Uyg‘un, I.Sulton, “Alisher Navoiy”) obrazlari ham yetukdir. Vafotidan so‘ng “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni b-n mukofotlangan (2000).

Ad.: *Раҳмонов М. Ҳамза Ўзбек давлат академик драма театри тарихи. – T., 2001.*

Z.R.

HIJOB – 1. Parda, to‘siq. 2. Majoziy: solik b-n Yaratgan o‘rtasidagi to‘siq; oshiqni ma’shuqasidan ajratib turuvchi qalin parda. Qalbda o‘rnashgan va haqiqatning yuzaga chiqishiga mone’lik qiluvchi moddiy narsalar mazmunida tushuniladi. H. tasavvuf va tasavvuf adabiyotidagi sirli, shu b-n bir qatorda, ancha murakkab haqiqatlarni anglash va kashf etishga imkon beruvchi istilohdir.

N. g‘azallaridan birida:

O‘zlugining hijobidin kimki o‘zin xalos etar,
O‘zga qayonki solsa ko‘z,
mumkin emas hijob anga, –

deydi. Bu baytda H. ham lug‘aviy, ham istilohiy mazmunda qo‘llanilgan bo‘lib, unda nafs pardasidan qutulish xususida fikr bildirilgan. Tasavvufga doir mo‘tabar manbalarda nafs H. va parda joyi, haqiqat esa kashf manzilidir. Parda ortida qolgan va bundan rohatlangan murid hech qachon kashf holiga sohib bo‘lolmaydi. Mana shuning u-n ham tasavvuf shayxlari va mutasavvif shoirlar H.ning zararlari, undan xalos bo‘lish choralari to‘g‘risida qayta-qayta so‘z yuritganlar. Ular H.ni eng og‘ir azob va jazo, deb bilishgan. Hadisi shariflarda ham “Alloh va inson orasida yetmish ming parda bordir”, – deyilgan. Tasavvuf ahli ham H.dan so‘z ochganda, asosan, yetmish ming raqamini tilga oladilar.

Ilohiy ishq otashi ta’sirida yetmish ming H. dan qutulish holini N. quyidagicha ta’riflaydi:

Haq ochib o‘z olidin niqobin,
Yetmish ming pardai hijobin,

Chekti oni ul haramg‘a onsiz,
Ne jism-u ne jon, ne jism-u jonsiz.

H.lar soni yetmish ming, o‘n sakkiz ming deyilsa-da, ko‘pincha yetti yoki to‘qqiz H. haqida ham bahs yuritiladi. Yetti H.ning 1-si – nafs sevgisi, 2-si – botin (me’da) shahvati, 3-si – hirs, 4-si – yasan-tusan shavqi, 5-si – avlod ishqi, 6-si – mol-mulk mehri, 7-si – martaba muhabbati. Bu yetti H. boshi ham, oxiri ham yo‘q jahannamga o‘xshatilgan. Ularning har biri och bir timsoh. Har on minglarcha odamlarni domiga tortadi. Insondagi barcha yomon xislatlar va chirkin xulqlar shu yetti narsadan tug‘iladi.

H. hijobi kavniyya va hijobi g‘ayri kavniyya, deya ikkiga ajratilgan. Har ikkisi ham ruhlar va jismlar olamiga daxldor. Ma’no va mohiyat e’tibori b-n H. zulmoniy hamda nuroniy, deya ikkiga ajratilgan. Zulmoniy H. vujudga tegishli, ya’ni tanga aloqador moddiy pardalar. Nuroniy H. ruhdan yuzaga keluvchi H.lardir. Chunki inson ruhi tan qafasiga kirgandan keyin ham moddiy, ham zulmoniy H. b-n pardalangan.

N.ning ta’riflashi bo‘yicha, payg‘ambarga zuhur bo‘lgan H.ning aksariyati zulmoniy va ozrog‘i nuroniy edi:

Bo‘lub raf’ o‘zluk aro pardasi,
Padid o‘ldi vahdat saropardasi.
Niqob anda yetmish ming etti zuhur,
Aning ko‘pragi zulmat, ozrog‘i nur.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Hujviriy. Kashf ul-mahjub. – Istanbul, 1996; Aziziddin Nasafiy. Insoni komil. – Istanbul, 1990; Metin Oqar. Turk adabiyotida manzum me’rojnomalar. Anqara, 1987; Umar Jaylon. Tasavvufiy she’r sharhlari. Istanbul, 2000; Жумаева С. Истилоҳ ва маъно. // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2004. № 1.*

I.H.

HIZQIL (a.s). – mursal payg‘ambarlardan. N. “T.A.H.”da keltirishicha, H. (a.s.)ga Ilyo (ba’zi manbalarda Doron deyilgan) shahriga borib kofirlarni haq dinga da’vat etish buyurilgan. Ammo xalq har qancha da’vat qilsa ham, qabul qilmagan. Allohning qahri kelib, bu qavmni toun (o‘lat, vabo) kasaliga mubtalo qilgan. Qavm bu balodan qutilish u-n turgan joylaridan biroz yurib, shahardan tashqariga chiqishganda, osmondan dahshatli bir tovush kelib, barchasi halok bo‘lishgan. Ularni dafn etadigan kishi bo‘lmaganidan jasadlari hidlanib, go‘shtlari suyagidan ajralib ketgan (bu qavmning soni haqida to‘rt ming, sakkiz ming va sakson ming degan qavllar bor). H. (a.s.) e’tikofdan chiqib, qavmining ahvolidan xabardor bo‘ladi va ko‘ngli yumshab, Allohga duo qilib qayta tiriltirishini so‘raydi. Duosi ijobat bo‘lib, barchasi tiriladi. Qavm shunday bir g‘arib holga tushgan bo‘lsa ham, gohida H. (a.s.)ning amriga itoat qiladi, gohida qilmaydi.

Bu holatdan ranjib, H.(a.s.) yurtidan hijrat qilib, Bobilga boradi va u yerda bir muddat yashab

vafot etadi. Uning qabri Hilla b-n Kufa orasida degan qavllar ham bor.

N. ruboiysida H. (a.s.) b-n bog‘liq voqealarga quyidagicha ishora qiladi:

Hizqil erdi rasuli pokiza sifot,
Mursal dedilar nubuvvatin borcha siqot.
O‘lganlar agarchi damidin topti hayot,
O‘lmakdin o‘ziga bo‘lmadi lek najot.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

S.R.

HIKMAT (ar.) – bilimdonlik, donishmandlik, adolat, ilm, yashirin sir, falsafa, ixcham so‘z, maqol; aql va haqiqatga to‘g‘ri keladigan nozik ma’noli qisqa so‘z, masal. H. so‘zining ma’nosi Qur’on tafsirlarida “sobitqadamlik”, ya’ni “so‘z va amalning birligi” sifatida talqin qilinadi. Umumiy ma’noda, H. barcha chiroyli ilm va foydali ishning nomini ifodalaydi. Tadqiqotlarda H. “fikrlash malakasining o‘rta holda bo‘lishi; tatbiq ila amalga oshuvchi, tajriba b-n erishiladigan to‘g‘ri bilim; Haqqa muvofiq so‘z; hamma narsaning eng mukammali, deya ta’rif berilgan. Allohning lashkari bo‘lib, u orqali Alloh avliyoning qalblariga quvvat bag‘ishlaydi; tasavvufiy she’rlarga ham H. deyiladi. H. – bilimdonlik, donishmandlik, falsafa, maxfiy sir, aql-u haqiqatga to‘g‘ri keladigan nozik ma’noli qisqa so‘z, masal; ashyoning ahvolidan: zohiriy va botiniy kayfiyatidan bahs etuvchi ilm; axloq va haqiqatga doir foydali muxtasar so‘z; Allohga itoat; aql, so‘z va harakatdagi uyg‘unlik”dir.

H. deb atalgan she’rlarning paydo bo‘lishi esa bevosita Xoja Ahmad Yassaviy shaxsi va faoliyati b-n bog‘liq. U o‘zi aytgan she’riy pandnomalarni H. deb nomlagan. “Devoni hikmat”da H. ma’nosiga monand “so‘z”, “nukta”, “ilhom” so‘zlari qo‘llangan. Darhaqiqat, uning kitobi shunday boshlanadi:

Bismilloh, deb bayon aylay hikmat aytib,
Toliblarg‘a durru guhar sochtim mano.
Riyozatni qattiq tortib, qonlar yutub,
Man “Daftari soniy” so‘zin ochtim mano.

Hikmatnavis shoirlar yassaviyona uslub va ruhda yozilgan she’rlarini an’anaga muvofiq ish tutib, “H.” deb nomlaydilar, o‘zlarining she’rlarini H. ekanligini e’tirof etadilar.

N. ham maxsus H. yozmagan bo‘lsa-da, “B.B.” devonida H.ning ma’no-mohiyatiga yaqin keluvchi nasihatoro va ma’vizatoso baytlar haqida to‘xtalib o‘tadi: “*...Mundoq devon bitilsa, xud asr-u behuda zahmax va zoyi’ mashaqqat tortilg‘on bo‘lgay. Ul jihatdin bu devonda hamd-u na’t va mav’izadin boshqa har sho‘rangiz g‘azaldinkim, istimo’i mahvashlarg‘a mujibi sarkashlik va g‘amkashlarg‘a boisi mushavvashliq bo‘lg‘ay, biror-ikkiror nasihatoro va mav’izatoso bayt irtikob qilindikim, alarning lam’ayi ruxsori iffat burqa’-idin ko‘p tashqari lomi’ bo‘lmag‘ay, to bularning vujudi xirmani ul barq ixroqidin bilqul zoyi’ bo‘lmag‘ay, yo‘qkim, bu g‘azallar g‘azolalari jilvagarlik soz, balki pardadarlik og‘oz qilsalar, bu baytlarning nasihatsoz vo’izlari va mav’izapardoz nosihlari moni’ bo‘lg‘aylar*:

...Bu nasoyih ahli hikmatlar bila,
Yuz tuman pand-u nasihatlar bila”.

Umuman olganda, N. asarlarida H. kalimasi quyidagi ko‘rinishlarda ishlatilgan: *ahli hikmat, hikmat ilgi, hikmat suyi, hikmat qalami, hikmatjo‘, hikmatpesha, hikmat virdi, hikmatoyin, hikmatomiz, hikmati ilohiy, hikmatmaob, hikmatoso, hikmat tariqi, hikmatpazir va h.k.*

Boda tutkim, ahli hikmat charx bemehr erkanin
Jom davri xatlari birla mubarxan qildilar.

N. H. deganda, eng avvalo, Alloh taoloning yaratuvchilik qudratidan bahs etadi. Jumladan, “N.N.” devonida, Allohning H.ini quyoshga mengzab, quyoshni hech bir yaratiq berkita olmaganidek, uning H.iga hech bir narsa xalal bera olmaydi, deydi:

Zihi nihoyating oxir kelib abad, avval,
Vale xabar bera olmay bidoyatingg‘a azal.

Ne qudrating xaylig‘a qilib tazalzul past,
Ne hikmating quyoshig‘a berib zavol halal.

Zero, buning tasdig‘ini biz Qur’oni Karimda ko‘ramiz: *“Subhonaka lo ‘ilma lano illa ma allamtano innaka anta-l-alim ul-hakim” (Ulug‘ zot, biz uchun boshqa ilm yo‘q, sen haqiqiy ilm va hikmat egasidursen. Baqara surasi, 32-oyat),* ya’ni chinakam ilm va H. sohibi Alloh taolodir. N. buni quyidagi misralarda yana bir bor ta’kidlar ekan, m-n, piyolaning gardishiga boqilsa, boshlanishi va oxiri topilmaganidek, ishq sirrini shu qadar yashirin etganki, unga bugungacha va bundan keyin ham hech kim tom ma’noda yeta olmaganiga ishora qiladi va Allohni “Hakim Azal” – “Azaldan mavjud Hikmat sohibi”, – deb ataydi.

Ketur piyolaki, ishq sirrini hakimi azal
Aningdek ayladi mubhamki, ayta olmasmen.

N. “F.Sh.”da Suqrotni aql va H.da benazir bir xiradmand sifatida talqin qiladi:

Qilib hikmat xirad Suqroti qismi,
Yasab jon ganjiga paykar tilismi.

N. yana shu dostonda Mehinbonu va Shirin tomonidan Farhodga atab hozirlangan ziyofat bazmida 10 ta husn va aqlda tengiz komila qizlarning har birini muayyan sohada barkamol hunar egalari ekanini ta’riflab, ulardan Parizod ismli dilorom aynan H. fanida yagonaligini ta’kidlaydi:

Biri tarixda so‘z aylab fasona,
Biri hikmat fani ichra yagona.

“S.S.” dostonida esa Luqmoni hakimdan bahs etib, el orasida mashhur “Hikmat ayturg‘a yaxshiroq Luqmon” iborasini keltirish orqali uning bu sohada nihoyatda barkamolligini urg‘ulanadi:

Yor o‘pub dedi dardmandi zamon,
“Hikmat ayturg‘a yaxshiroq Luqmon”.

Luqmon Sharq adabiyotida hakim – tabib, ba’zi tarixiy manbalarda esa payg‘ambarlar sirasida keltirilgan bo‘lib, uning nomi b-n bog‘liq ko‘plab H. va hikoyatlar mavjud. Xossatan, N.ning o‘zi “T.A.H.” asarida Luqmoni hakimga maxsus to‘xtaladi. Biz yuqorida aytganimizdek, tarixchilardan ba’zisi uni hukamo silkida zikr qilganini aytadi. Ko‘pchilik esa uning payg‘ambar deganlarini qayd etadi. Shuningdek, N. boshqa bir rivoyatga ko‘ra Tengri taolo Luqmonni nubuvvat va hikmat orasida muxbir (xabarchi) qildi va “... har taqdir bila *“Va laqad otayno luqmonal-hikmata*” (“*Aniqki, Biz Luqmonga hikmat ato etdik...”* oyatini Luqmon haqida nozil bo‘lgan, deydi. Asarda uni shunday tasvirlaydi: “*Bo‘la olurki, bovujudi nubuvvat hikmat dag‘i anga nasib bo‘lmish bo‘lg‘ay. Rangi qaro erkandur. Dovud a.s. suhbatig‘a musharraf bo‘lur erdi... Ruboiy*:

Luqmonniki ba’zi dedilar payg‘ambar,
Ba’zi dedilar hakimi pokiza siyar.
Uch ming yashabon bu dayrni qildi maqar,
Ming muncha ham o‘lsa, qilg‘uluqdur bu safar.

Mazkur asarda N. keltirgan rivoyatga ko‘ra, Luqmon kimningdir quli bo‘lib, xojasi qo‘y so‘yib, eng yaxshi a’zosini pishirib kel, deb buyuribdi. Luqmon qo‘yning yurak va tilini keltiribdi. Boshqa safar xojasi qo‘y so‘yib, eng yomon a’zosini pishirib kel, debdi. Luqmon yana yurak va tilni keltiribdi. Xoja buning ma’nosini so‘raganda, u debdi: “Ko‘ngul noloyiq fe’l-atvordan, til keraksiz so‘zlardan beri bo‘lsa, ulardan yaxshiroq a’zo yo‘qdir, agar bo‘lmasa, ulardan yomonrog‘i yo‘qdir”. Yana aytishlaricha, Luqmon hikmatlaridan 4000 tasi yig‘ilgan ekan. Shundan ikkitasini doim yodda saqlab ikkitasini unutish kerak emish. Chunki avvalgi ikkisi – o‘zi qilgan yaxshiliklar, keyingi ikkitasi boshqalar qilgan yomonliklar haqida emish. Qadimgi manbalar Luqmon b-n bog‘liq ba’zi rivoyatlarni mil. av. VI asrda yashagan yunon masalchisi Ezopga nisbat beradilar.

N. “F.Sh.”da ayrim boblarni, aniqrog‘i, Iskandar va Arastu o‘rtasida bo‘lib o‘tgan savol-javoblardan iborat qismlarni H. deb nomlaydi va o‘sha o‘rinlarda hikmatli naql keltiriladi. Arastuni beqiyos H. egasi sifatida talqin etadi.

Vagar hikmatqa bo‘lsa iltifoting
Ki, bo‘lsun Nuh umricha hayoting.

Baytdan ma’lum bo‘lishicha, kimki umrini H. b-n o‘tkazsa, har bir ashyo va hodisotning H.ini bilishga urinsa va ulardan o‘ziga kerakli xulosalar ola bilsa, lo‘nda qilib aytganda, H.ga rag‘bat ko‘rsatsa, uning bajargan amallari, yozganlari boqiylik mazmunini kasb etib, Nuh umridan ham ziyoda – ming-ming yillar yashaydi.

“S.I.” dostonidagi asosiy boblardagi H. qismida Iskandar Arastuga savol b-n murojaat qiladi. Bu yo‘l faqat 73-bobning 3-qismida Suqrotga va 77- bobning 3-qismida Luqmonga murojaat qilish b-n o‘zgargan, xolos. N. Arastuni “hikmatoyini donanda” – hikmatlar bilimdoni, deb ulug‘laydi.

Dedi hikmatoyini donanda harf
Ki: “Qilding savole bag‘oyat shigarf”.

Hech bir o‘rinda hayot mantig‘i va muvozanatini unutmagan N. Arastuga savol beruvchini – Iskandar ham H.da tengsizligini, nubuvvat ishidan ham xabardorligiga – uning payg‘ambar bo‘lgani haqidagi xabarlarga ham ishora etib, “T.M.A”da quruqlik va ham dengizda hukm surgan, martabasi Zuhaldan ham yuksalgan, valiy va donishmand shoh, deb tasvirlaydi:

Skandarki fath ayladi bahr-u bar,
Kirib taxti farmonig‘a xushk-u tar.

Yetishti Zuhal avjig‘a rif’ati,
Chalindi falak toqig‘a navbati.

Valoyat bila hikmat-u shohlig‘,
Nubuvvat ishidin ham ogohlig‘.

N. “N.M.” tazkirasida Yassaviyning eng taniqli izdoshi sanalgan Hakim Sulaymon ota haqida to‘xtalganda, uning H. aytuvchi ekanligiga alohida urg‘u beradi: *“613. Hakim ato (r.t.) Oti Sulaymondur va Xoja Ahmad Yassaviy (q.s.) ning murididur. Hamonoki bir kun Xoja tabxe buyurg‘ondurlarki, mutbixe o‘tun etmaydur, deb kelgandur. Alar as’hobg‘a degandurlarki, yozidin o‘tun terib kelturung! Va ul zamon yog‘in yog‘adur ekandur. As’hobkim o‘tun teribdurlar, alar xizmatig‘a kelguncha yog‘in jihatidin o‘tunlar ho‘l bo‘lg‘ondur. Hakim ato tergan o‘tinlarni to‘nig‘a chirmab, quruq kelturgandur. Xoja Hazratlari degandurlarki, ey farzand, hakimona ish qilding va alarg‘a bu laqab ondin qolg‘ondur va Hakim atog‘a hikmat tili go‘yo bo‘lubdur”.* Ma’lum bo‘ladiki, Xoja Ahmad Yassaviy shogirdlariga cho‘ldan o‘tin keltirishni buyurganlarida, Sulaymon Boqirg‘oniy o‘zi to‘plagan o‘tinlarni choponiga o‘rab olib keladi va shu tariqa yomg‘irdan ho‘l bo‘lishining oldini oladi. Uning bu zukkoligini ko‘rgan Yassaviy hazratlari unga Hakim – hikmat egasi, deb ism berib, olqishlaydilar. Ana shundan e’tiboran Sulaymon Boqirg‘oniyga Hakim ota nisbasini berish odat tusiga kirgani ma’lum bo‘ladi.

Shuningdek, N. “N.M.”da shayx Ibrohim Marg‘inoniy (q.s.)ning ilm, H. va hayot, tiriklikka bergan qisqa, ammo tushunarli va teran ma’noli ta’rifini keltiradi: *“... ulcha quloq anglag‘oy – ilmdur va ulcha fahm anglag‘ay – hikmatdur va ulcha oning bila eshitilgay va aning bila anglag‘aysen – hayot va tiriklikdir”.* Demak, insonda fahm-farosat kuchi uni H. egallashiga bois bo‘lishini tushunish mumkin.

N. ilm, tibbiyot b-n hikmatni yonma-yon qo‘yadi. Jumladan, N. o‘zining “N.M.” tazkirasida “Hujjat ul-islom” Imom Muhammad G‘azzoliyning avlodidan bo‘lmish Mir Islom G‘azzoliyga bag‘ishlangan fiqrasida H.ni bir fan deb talqin qilgani ko‘rinadi: *“... zohir ulumin takmil qildi va lekin foniy sifat va betakalluf kishi erdi. Va tibb va hikmatda mahorati bor erdi*”.

N. “M.Q.” asari shoirning umri nihoyalab borayotganida yozgan hayotiy tajribalari hosilasi o‘laroq yuzaga kelgani nazarda tutilsa, uning

mutafakkirligi, donishmandligi mazkur kitobida yaqqol bo‘y ko‘rsatgan. Xususan, H.larga alohida e’tibor b-n yondashadi, bir necha tanbehlarida H.larga urg‘u beradi. Hatto insonlikning bosh belgisi, zebi, toji – H. deb biladi: *Er kishiga zeb-u ziynat – hikmatu donishdurur.*

Odamzot boshiga kelgan har qanday qiyinchiliklarni, muammolarni aql-u hikmat ila yechishi mumkinligiga qat’iy ishonadi, oz so‘zlilik insonning hikmat-u donish egasi ekanligidan dalolat, deb biladi, kam yeyish esa H.ning sarmoyasidir, deya o‘git beradi:

Kishiga necha kelsa mushkul hol,
Hikmat-u aql anga erur hallol...

Oz demak hikmatqa bois va
oz emak sihhatqa bois...
Ochlig‘ hikmat sarmoyasidur
vato‘qlug‘ g‘aflat piroyasidur.

Zotan, mumtoz adabiy matnlarimizni tashkil qiluvchi asarlarning hech biri H.dan xoli emas. Ular bitgan adabiy-badiiy asarlar doimo qalb ozig‘i, ruh quti bo‘lib kelgan. Ayniqsa, ular she’riy ko‘rinish olarkan, xalqimiz ma’naviy va ma’rifiy hayotining mazmuniga aylangan. Shuning u-n bo‘lsa kerak, N. Hazrat Ali (r.a.)ning hikmatlarini ruboiy shaklida taqdim etib, ularni “N.J.” deb nomlagan. M-n, “N.J.”dan o‘rin olgan 175-ruboiy Hazrat Alining “G‘animat ul-mo‘min vajdon ul-hikmati” – “Hikmatni his qila olish – mo‘min uchun sovg‘adir” hikmati badiiy ifodasi quyidagicha:

Mo‘min bori eldin o‘zini kam bilsa, kerak,
Haqdin ne anga kelsa, karam bilsa kerak,

Behikmatlig‘ini dard-u g‘am bilsa kerak,
Hikmat toparini mug‘tanam bilsa kerak.

Shu tarzda N. jahon adabiyotida H. ahli donishmandlik timsoliga, ramziga aylangan an’anaviy obrazlardan unumli foydalanib, H. ning ma’no-mazmunini yanada teranlashtirib, o‘z asarlarining didaktik mohiyatini oshirishga erishgan.

Ad.: *Қуръони Карим. Ўзбекча изоҳли таржима. Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур. – T., 1992; Алишер Навоий. Назм ул-жавоҳир. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – T., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – T., 2011; Abdurrezzak Kaşani. Tasavvuf sözlügü, çev: Ekrem Demirli. – Istanbul, 2015; Hamdi Yazir. Hak dini Kuran dili 2. – Istanbul: Zehrayeyin, 2017; Köprülü Fuad. Turk edebiyatinda ilk mutasavvuflar. – Ankara: 1976; Muhammed Fuad Abdulbaki. El-Mu’cemu’l-Müfehres, Çağrı Yay. – İstanbul, 1984; TDV İslâm Ansiklopedi, c.17. – İstanbul, 1998; Маннопов И.С. Ўзбек муттоз адабиётида ҳикматнавислик анъанаси ва тадрижи. – Ф.ф.номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореферати. – T., 2020.*

E.Q., S.O‘.

HIKOYACHILIK VA NAVOIY – N. o‘z ijodi b-n o‘zbek adabiyotida hikoya janrining ham takomillashuviga katta hissa qo‘shdi. Garchand N. alohida hikoyatlar yaratmagan bo‘lsa-da, uning “S.S.”, “L.T”, “H.A.”, “S.I.” kabi yirik dostonlarida u yoki bu masala munosabati b-n keltirilgan hikoyatlari uning hikoyanavis sifatida ham yuksak mahoratidan darak beradi. Har bir adabiy janrning o‘ziga xos belgilarini yaxshi bilgan N. hikoya janrining ham voqelikni aks ettirishdagi imkoniyatlarini hisobga olib, ham g‘oyaviy, ham badiiy jihatdan yuksak hikoyatlar yaratdi. Har bir hikoyat o‘zining mustaqil syujet chizig‘iga, obrazlariga ega. Ularda syujetning barcha komponentlari bor. Shoir hikoyatlarida hikoya janriga xos ko‘pgina xususiyatlar mavjud. Shuning b-n birga har bir hikoyat o‘ziga xos jihatlarga ham egadir. Zero, hikoya janriga xos xususiyatlardan eng muhimi qisqalik va siqiqlik sanaladi. N. fikrni ixcham, tushunarli shaklda ifoda qilish mazmundan qutqazmasligini qayta-qayta ta’kidlaydi. Bu haqda shoir “S.S.” dostonida shunday yozadi:

Har ne bir dostong‘a soldi sado,
Munda bir bayt birla tobqoy ado.

Mujmal oning so‘zin qilib takmil,
O‘z hadisimg‘a bergamen tafsil.

N. hikoyatlariga nazar tashlar ekanmiz, rangbarang obrazlarga duch kelamiz. Shoir o‘tmish klassik adabiy an’anaga, xalq og‘zaki ijodi namunalariga suyangan holda turli xil kishilarning ijobiy va salbiy obrazlarini yaratdi. N. hikoyatlarida o‘sha davrdagi turli soha vakillari, odil shoh va shahzodalarning ijobiy obrazlarini ham badiiy mahorat b-n tasvirladi. Bu hikoyatlarda oddiy kishilar obrazi ham talaygina. M-n, “Shoh G‘oziy” hikoyatidagi faqir va keksa kampir obrazi, “Hotami Toyi” hikoyatidagi o‘tin terib kun ko‘ruvchi chol obrazi, “Bahromgo‘r” hikoyatidagi g‘arib dehqon obrazi, “Shoh Jo‘na va Mas’ud” hikoyatidagi shohga nok sovg‘a keltirgan dehqon va g‘arib mehmon obrazlari hamda “Ul kabutar” hikoyatidagi kabutar ana shunday obrazlardandir. Hikoyatlardagi obrazlar hayotiy lavhalarda ixcham shaklda ishonarli qilib tasvirlangan. Shoir hikoyatlarida Jo‘na Mas’ud (“Shoh Jo‘na va Mas’ul” hikoyatidan), Navdar va No‘mon, Mahmud va Mas’ud (“Shoh Mas’ud” hikoyatidan) kabi qator shoh va shahzodalarning ijobiy obrazlari yaratilgan bo‘lib, ularning ko‘pchiligi ideal xarakterga ega. Shuning b-n birga shoh va shahzodalarni ulardan o‘rnak olishga, adolatli bo‘lishga chaqiradi. Hikoyatlardagi xotin-qizlar obrazi ham ibratlidir. Mehr (“Mehr va Suhayl”), Malluning qizi mana shunday obrazlar jumlasidan.

N. hikoyatlarida Mallu, Jaypur, Jobir, Zayd Zahhoblar kabi qator salbiy obrazlar portreti ham chizilgan. Ularda adolatsiz hukmdorlarga xos xarakterli xususiyatlar: zulm, munofiqlik, behuda qon to‘kishlik, xoinlik jamlangan. Umuman, shoir hikoyatlaridagi obrazlarning hammasi ham, ijobiy yoki salbiy bo‘lishidan qat’iy nazar, ma’lum ma’noda umumlashgan obrazlardir. Ayni vaqtda, hikoyatlardagi har bir obraz o‘zining individual xislatlari b-n boshqalardan keskin ajralib turadi. Bu xislatlar ularning xatti-harakatlari, ruhiy kechinmalari, dunyoqarashlari, tashqi ko‘rinishlari va nutqida ko‘zga tashlanadi.

Portret, peyzaj, obrazlarni turli dramatik holatlarda tasvirlash, psixologizm kabilar shunday vositalardandir. Portret chizish xarakter yaratishning yordamchi vositalaridan biri hisoblanadi. Portret obraz, qahramon xarakteridagi eng muhim yetakchi xislatni yanada ta’kidlashga va ayni chog‘da qahramon qiyofasini aniq va jonli qilishga yordam beradi. N. hikoya janri imkoniyatlarini hisobga olgan holda ularda kishilar portretini mukammal chizib bermaydi. Shoir hikoyatlarida aksar obrazlarning to‘liq portreti chizilmagan. Shoirning badiiy mahorati shundaki, u yoki bu obraz portretiga xos ba’zi asosiy shtrixlarni, belgilarni keltirish b-n ularning to‘liq qiyofasini, portretnni o‘quvchi ko‘z oldida gavdalantira olgan. Shuning b-n birga, hikoyatlardagi obrazlarning portretlari ularning psixologiyasi, ichki dunyosi b-n mos ravishda berilgan. M-n, “Hotam Toyi” hikoyatida o‘tinchi cholning portreti to‘liq chizilmagan. Hikoyatdagi:

Jismi uyin aylabon ul yuk nigun,
Tirkabon ul uyga asodin sutun.

Har qadam olg‘uncha etib muddate,
Har nafas urg‘uncha o‘tib fursate...

baytlarini o‘qir ekanmiz, og‘ir mehnat va zamon mashaqqatlaridan qaddi bukilgan majolsiz kishining yorqin qiyofasi, ruhiy holati, ichki kechinmalari aniq va jonli ko‘rinadi.

Yoki “Mehr va Suhayl” hikoyatidagi Jobir obrazini olaylik. Jobirning portreti to‘la chizilmagan. Lekin 2 bayt orqali Jobirning tashqi ko‘rinishi haqida kitobxonda yetarli tasavvur shakllanadi:

Ham tanumondu ham shujo-u daler,
Ul sifatkim jazira ichrakiy sher.
Bahr aro ofati nechukki nahang,
Besha ichra nechukki sher-u palang.

1-baytda Jobirning kuchli ekanligini ko‘rsatish u-n sherga o‘xshatiladi. 2-baytda 1-baytdagi fikr rivojlantirilib, Jobir ofat keltiruvchi nahangga o‘xshatiladi. Bu b-n uning salbiy xususiyatlari ochiladi. Natijada, ko‘z oldimizda Jobirning ba-

haybat salbiy obrazi gavdalanadi. Aytish kerakki, N. hikoyatlarida ba'zi obrazlarning portretlari orqali ularni bir-birlaridai farq qilish qiyin. Chunki shoir hikoyatlaridagi portretlar ko'p vaqt an'anaviy xarakterga egadir. Ulardagi xotin-qizlar portretini chizishda ishlatilgan anchagina iboralar ("qaddi sarv", "og'zi g'uncha", "yuzi mehr") erkak personajlarning portretini chizishda ham qo'llanadi. M-n, "Mehr va Suhayl" hikoyatidagi Mehr va Suhayl portretlarini keltiramiz.

Mehr portreti:

Qadikim naxli sarfaroz kelib,
Husn bog'ida sarvinoz kelib.

Yuziga mehr banda-u oti Mehr,
Uyrulub mehridek boshig'a sipehr.

Suhayl portreti:

Yuzidin bargi gul xijil erdi,
Qaddidin sarv munfail erdi.

Hunar avji sori kelib anga mayl,
Yuzi andoqki mehr, oti Suhayl.

Demak, N. hikoyatlarida portretlar to'liq berilmasa ham, ba'zi muhim detallar ko'rsatib ketilgan. Bu detallar orqali obrazlarning portretlari gavdalantirilgan. Shoir portret yordamida obrazlarning ichki dunyosini, ruhiy kechinmalarini ochishga muvaffaq bo'lgan.

Hikoyatda boshqa vositalar kabi peyzajning ham roli katta. Peyzaj adabiyotning asosiy obyekti – inson faoliyatining ma'lum bir tomonini, uning xarakterini ochishga xizmat qilishi kerak. Yozuvchi tabiat tasviri, muhit va sharoit, narsa va predmetlardan, uy ashyolari, ishlab chiqarish qurollaridan inson faoliyatini atroflicha tasvirlash u-n yordamchi fon, vosita sifatida foydalanadi. Bu b-n yozuvchi asarning umumiy g'oyasini to'laroq ochishga, badiiy qimmatini oshirishga erishadi.

N. hikoyatlarida peyzaj shunday vazifalarni bajarganini ko'ramiz. M-n, "Mehr va Suhayl" hikoyatida shoir Mehrning Jobir qo'liga tushgandagi ayanchli ruhiy holatini berishdan avval shu ruhiyatiga mos ravishda va realistik lavhalar chizadi. Bulardan dengizda ko'tarilgan dahshatli bo'ron tasviri Mehrning o'sha vaqtdagi holatiga ishorat vazifasini o'tasa, Mehrning Jobir qo'lida tutqunlikda yashagan bog' tasviri uning ichki kechinmalariga hamohang tarzda berilgan. Mana shu bog'ning tasviri:

Buylakim hajr qo'ydi bag'rig'a dog',
Manzil o'lmish edi anga ul bog'.

Bor edi anda gunaguna shajar,
Gul yo'q erdi, bag'ayri nilufar.

Nilufarvor so'gvor erdi,
Nilufar ichra ashkbor erdi.

Ashkidin go'yi-yo berur edi suv,
Oh o'tidin qururg'ayib qayg'u.

Yo'qki hijron g'amida zor-u zalil,
Nilufar ichra oqizib edi Nil.

Topibon ashki nilufarda mamar,
Yo'q, ajab bahr ichinda nilufar...

N. hikoyatlarida keltirilgan peyzaj obrazlarning ichki dunyosini ko'rsatish va xarakterlarini ochishda ham ahamiyatlidir.

Shoirning "Shoh Jo'na..." hikoyatida keltirilgan shahar tasviri Mas'ud xarakterini ochishga qaratilgan:

Dedi: "Shahridur ul bihishtoso,
Naxli to'bi misoli gardunso.
Kavsaroso suyi dalili aning,
Har taraf rudi salsabili aning.

Ravza yanglig' havosi jonparvar,
Suyi kavsar kibi ravonparvar,

Eliga bog' ziynati – pesha,
Bog'din yaxshiroq anga besha.

Bu tasvir Mas'udning adolatli ekanligini yanada to‘laroq tasavvur qilishga yordam beradi. Shuningdek, hikoyatlarda tabiat, muhit, shahar, bog‘larning realistik tasviri keltiriladi. Bular bir tomondan, obraz xarakterini ochishga, ruhiy holatini ifodalashga yordam bersa, ikkinchi tomondan, hikoyatning emotsional kuchini, ta'sirchanligini oshiradi.

Shoirning "Bahrom Go‘r", "Hotam Toyi", "Shoh Jo‘na va Mas'ud", "Mehr va Suhayl" kabi hikoyatlari psixologik tasvirga boyligi b-n ajralib turadi. Misol u-n "Mehr va Suhayl" hikoyatini olaylik. Unda shoir turli psixologik holatlar yaratib, Mehr va Suhaylning ruhiy kechinmalarini, ichki dunyosini ochib beradi. Natijada, o‘quvchi ko‘z o‘ngida ularning jonli va murakkab obrazlari gavdalanadi. Suhaylning chohdagi kayfiyati, Mehrning Jobir qo‘liga tushgandan keyin yolg‘izlikdagi kechinmalari, hijron azobi b-n to‘la bandiga murojaati; Navdarning Mehrning Jobir qo‘liga tushganlik xabarini eshitgandagi kayfiyati; Navdar maktubini olgan No‘monning Suhaylni Mehr oldiga borib yetmaganligidan tortgan iztiroblari ham ana shundaydir. Mehrning bandiga murojaat qilmasdan oldingi kechinmalari o‘z so‘zlari orqali juda nozik tasvirlangan:

Dedi: "Ul chahdin oni qutqorsam,
Yig‘labon zor-zor yolborsam,

Ozim etsam Suhayl uchun oni,
Kim desam hojatimni pinhoni,

Ul magar holatimni anglab jazm,
Maxlasimg‘a bu sori qilg‘ay azm".

Mehrning bandiga murojaati ham uning nochor ahvolda qolgandagi kayfiyatini ko‘rsatadi. Xuddi shuningdek, Suhaylning ham chohdagi kayfiyati uning Mehrga bergan javobida yaxshi anglashiladi:

K-ey bashar xilqat-u farishta sifot:
Bergan o‘lgan tanimg‘a toza hayot.

Sendin etsa bu nav' lutf zuhur,
Har nechuk ishga aylasang ma'mur.

Sa'y etay to tanimdadur jonim,
Qilayin toki bo‘lg‘ay imkonim.

Hikoyatning eng qimmatli tomoni shundaki, shoir Mehr va Suhaylning Jobir tutqunligidagi azoblarini, kechinmalarini ochish orqali ularni sof qalbli oliyjanob kishilar qilib ko‘rsatadi, tongday musaffo muhabbatni ardoqlash orqali qalbimizda insoniy tuyg‘ular qo‘zg‘atadi. Shu muhabbatni toptamoqchi bo‘lgan Jobirni ko‘rsatish b-n esa zulmga qarshi nafrat uyg‘otadi. Shu maqsadga erishishda shoirga psixologik tasvir yordam beradi.

N. hikoyatlarining kompozitsiyasida didaktik xarakterdagi xotimalar katta ahamiyatga ega. "X."dagi dostonlarning xarakteriga qarab, ularda keltirilgan hikoyatlar ham turlicha tugallanadi. Shoir "H.A." dostonidagi har bir hikoyatni pand-nasihat xarakteridagi didaktik xulosalar b-n tugatadi. Har bir hikoyatning oxirida shoir soqiyga murojaat qiladi, unda olg‘a surilgan g‘oyani yana bir bor ta'kidlab, bo‘rttirib ko‘rsatadi. M-n, asarning 11-maqolatida keltirilgan "Imom Faxr Roziy..." haqidagi hikoyatni olaylik, uning xotimasida shunday bayt bor:

Ilm, Navoiy, senga maqsud bil,
Emdiki ilm o‘ldi, amal aylagil.

Mana shu didaktik xotimada har bir insonning ilmli bo‘lishi va shu bilimiga amal qilishi kerakligi haqidagi g‘oya ta'kidlangan. "S.S." dostonida keltirilgan hikoyalar esa o‘ziga xos xarakterda xotimalanadi. Dostondagi 7 hikoyat bir xil tugallanadi. Har bir musofirning hikoyasi tugashi b-n Bahrom uning kimligini so‘raydi, uni o‘z saroyiga xizmatga oladi va uyquga ketadi. 7 hikoyatning bir xil xotimalanishi ularning bevosita "Bahrom" hikoyati b-n bog‘liqligini ko‘rsatadi va shu b-n izohlanadi.

"S.I." dostonidagi hikoyatlar ham o‘ziga xos tugallanmaga ega. Ularning ba'zilari konfliktning yechimi b-n, ba'zilari esa shoirning qissa-

dan hissa chiqarishi b-n tugaydi. M-n: “Bulbul” hikoyati konfliktning yechimi b-n xotimalanadi. Bulbul b-n qarg‘aning suhbatida qarg‘a yengiladi. Buni shoir quyidagicha bayon etadi:

Chu bulbul ayon qildi bu dard-u dog‘,
Qarordi javobida afsurda zog‘.

Demakka javob o‘lmadi saxtko‘sh,
Qish ayomi bulbuldek o‘ldi xamush!

Shu dostondagi “Majnun” hikoyatida esa shoir qissadan hissa chiqaradi:

Qachon noma bo‘lsa tiriklikka dol,
Hayoti abad bersa tong yo‘q – visol.

Hikoyatlar kompozitsiyasida lirik chekinishlar ham bor. Ularda muallif pozitsiyasi, voqea, hodisa va obrazlarga bo‘lgan munosabati, dunyoqarashi ochiq ko‘rinadi. M-n, “S.S.” dostonidagi “Mehr va Suhayl” hikoyatida gap Mehr otasining ovga berilib ketib o‘z askarlaridan ajralganligi, nihoyat, dushman tuzog‘iga tushganligi haqida boradi. Bundan nihoyatda ta’sirlangan shoir lirik chekinish yasab, o‘z munosabatinn quyidagicha bildiradi:

Shah tilar bo‘lsa shohliq qilmoq,
Sipahidin kerakmas ayrilmoq.

Shahni derlar sipoh birlan shoh,
Shoh emasdur yo‘q ersa anda sipoh.

Shahg‘a xayl o‘lsa fath aning ishidur,
Bir kishi Rustam o‘lsa, bir kishidur.

Qisqasi, shoir hikoyatlarining kompozitsion qurilishida pand-nasihat xarakteridagi xotimalar, hayajonli lirik chekinishlar katta ahamiyatga ega. Shoir hikoyatlarining har biri o‘z kompozitsion markaziga ega. Bu markaz ularda ilgari surilgan g‘oya b-n ko‘pincha mos keladi. “Shoh G‘oziy”, “Bahrom Go‘r”, “Mahmud”, “Shoh Jo‘na va Mas’ud” hikoyatlarida shoirning diqqat markazi adolatli shoh obrazini yaratishga qaratilgan. Bu hikoyatlarning kompozitsiyasi ham muallifning ana shu g‘oyaviy-estetik maqsadiga bo‘ysundirilgan bo‘lib, ulardagi har bir detal bevosita bitta kompozitsion markazga – adolatni ulug‘lashga xizmat qiladi. Hikoyatlarning kompozitsion markazi estetik qimmatga egaligi b-n ham diqqatga sazovordir. Bu ularda markazning xarakterlar b-n uzviy bog‘liqligida ko‘rinadi. Ulardagi har bir epizod va har bir detal xarakter yaratish u-n xizmat qiladi. Shuning b-n birga detal, epizod, voqealar tasviri, obrazlar markazga, shoirning badiiy maqsadiga muvofiq va mosdir.

M-n: “Hotam Toyi” hikoyatidagi detallarni ko‘rib chiqaylik. N. bunda yosh odamni emas, qari cholni tasvirlaydi, salqin ko‘kalamzor yerlarni emas, quyosh qizdirayotgan dashtni — sahroni chizadi; chol ko‘tarib ketayotgan o‘tin ham oddiy o‘tin emas, tikanli va boshqalar. Bularning hammasi orqali shoir mehnatkash inson xarakterini ochib berishga harakat qilgan. Yoki “Zayd Zahhob” haqidagi hikoyatda har bir epizod, har bir detal o‘z o‘rnida ishlatilgan. Shoirning asosiy maqsadi qalloblikni undagi asosiy obraz Zayd Zahhobning xatti-harakatlari orqali ochib tashlagan. Hikoyatning kompozitsiyasi ham muallifning maqsadini ochishga bo‘ysundirilgan, undagi har bir detal bevosita yagona kompozitsion markazga – qalloblik va munofiqlikni fosh etishga qaratilgan. Hikoyatning kompozitsion markazi ham Zayd xarakterini ochishga qaratilgan. Zaydning munofiqligi, bu munofiqlikning ochilishi, uning zindonga tashlanishi, zindondan qochishi, Konstantinopoldagi butxonaga borib, xristian dinini qabul qilishi, butxona boyliklarini o‘g‘irlab, yana o‘z yurtiga qaytishi, shoh kasalini tuzatib, ilgarigi mavqega ko‘tarilishi kabi epizodlar biri ikkinchisiga bog‘langan holda hikoyatdagi asosiy masala – munofiqlik, qalloblikni to‘laroq ochishga xizmat qiladi. Hikoyat ikki qismdan iborat bo‘lib, har bir qism Zayd Zahhob faoliyatining muhim bir tomonini ifodalovchi epizodlarni o‘z ichiga oladi. Hikoyatning boshlanishida Zaydning saroydagi qallobligi ochib tashlansa, Konstantinopoldagi xatti-harakatlarini

ko‘rsatish orqali qalloblik yo‘lida hech qanday munofiqlikdan qaytmasligi ko‘rsatilgan. Demak, N. hikoyatlarining jonli va ta’sirli chiqishida kompozitsiyaning pishiq ishlanishi katta rol o‘ynagan.

N. hikoyatlarining ko‘pchiligi birgina voqea asosiga qurilgan. Bunday hikoyatlarda shoirning mahorati shundaki, u o‘quvchini hikoyatning boshlanishidayoq syujet rivojiga olib kiradi. Birgina voqea asosiga qurilgan hikoyatlarda ekspozitsiya juda qisqa bo‘lib, bunda hikoyatdagi qahramonlar, voqeaning vaqti va o‘rni b-n tanishtiriladi. M-n, “H.A.” dostonidagi “Bahrom Go‘r” hikoyatida Bahrom va dehqon syujet liniyasi bor. Hikoyatning boshlanishida undagi asosiy obraz bo‘lgan Bahrom Go‘rning ta’rifi beriladi:

Qo‘ydi jahon mulkini chun Yazda Jird,
Ayladi Bahrom tana’umni virdi.

Bodayi g‘aflat ani mast ayladi,
Mast nekim, bodaparast ayladi.

Shah chu bo‘lur boda ichib masti xob,
Mastlar o‘q mulkin etarlar xarob.

Xasta ko‘ngul ovlomoq etmay havas,
Sheva anga dashtda ov erdi bas.

Bu tasvirdan Bahromning ovga berilib ketganligi, xalq holidan bexabarligi ravshan anglashiladi. Hikoyatdagi asosiy g‘oya shu obraz orqali ochiladi. Shoir o‘quvchini bosh obrazdan so‘ng voqeaning o‘rni b-n tanishtiradi. Bahrom ovlarning birida bir xaroba qishloqdagi dehqon kulbasiga borib qoladi. U vayronalikning sababini dehqondan so‘raydi. Ana shu vaziyat asosiy voqeaning tuguni hisoblanadi. Voqea juda tez rivojlanadi. Hikoyadagi xaroba qishloqning realistik tasviri hamda dehqonning haqqoniy so‘zlari shoh Bahromga qattiq ta’sir etishi kulminatsiyasidir. Voqea esa shohning adolatli bo‘lishi b-n yechiladi.

N. hikoyatlarining hammasi ham birgina epizodik holat asosiga qurilgan emas. Ular orasida bir necha voqealarga qurilgan hikoyatlar ham bor. Bunday hikoyatlarda birgina asosiy voqea bo‘lib, qolganlari yordamchi voqea-hodisalar hisoblanadi. “S.S.” dostonida keltirilgan yetti hikoya mana shunday bir necha voqeani o‘z ichiga olgan hikoyatlardir.

M-n, “Mehr va Suhayl”ni olaylik, hikoyatda Mehr aa Suhayl, Mehr va Jobir, Jobir b-n Suhayl, Navdar b-n Jobir, No‘mon va Jobir b-n bog‘liq bo‘lgan qator voqealar tizmasi bor. Ular tizmasi hikoyatning syujet liniyasini tashkil qiladi. Voqealar ichida Mehr Suhayl o‘rtasidagi sevgisi asosiy, qolganlari yordamchi va muhim voqeani oydinlashtirishda to‘laroq ochishga xizmat qiladi. Shuning b-n birga, har epizodik voqea asosiysining bir bo‘lagi vazifasini o‘taydi. Bu kabi syujetlar hikoyatning qiziqarli chiqishini ta’minlagan. Shoirning bu boradagi mahorati shunda ko‘rinadiki, u ketma-ket to‘qnashuvlar keltirib chiqarib, hikoyatlarning oxiriga qadar uzluksiz hayajon b-n o‘qilishini ta’minlagan. Ko‘rinadiki, “Mehr va Suxayl” kabi hikoyatlarda voqealar mantig‘i 1-o‘rinda turadi. Shoir Mehr va Suhayl sarguzashtini ochib berish uchun ketma-ket voqea va hodisalar tasvirini keltiradi. Lekin hamma hikoyatlar ham shu xarakterda emas. Shoirning har bir hikoyati o‘ziga xos syujet qurilishiga ega. “Shoh Jo‘na va Mas’ud” kabi hikoyatlarda voqealar mantig‘i emas, xarakterlar mantig‘i 1-o‘rinda turadi.

Voqea va hodisalar Shoh Jo‘na va zolim Jaypur xarakterini bo‘rttirib ochishda guruhlashgan holda keltiriladi. Hikoyatning boshlanishida undagi asosiy obraz shoh Jo‘na obraziga xarakteristika berilib, uning adolatli va saxiyligini tasvirlash u-n qator epizodik voqea va hodisalar keltiradi. M-n, shohga nok sovg‘a qilgan dehqon voqeasi shohning adolatli saxiy ekanligini bo‘rttirib ko‘rsatishga yordam bersa-da, asosiy voqeaning zarur bosqichi hisoblanmaydi. Shoir o‘quvchini ijobiy qahramonlar b-n tanishtirib bo‘lgach, salbiy obrazlar: Jaypur va uning noibi Mallu b-n tanishtiradi. Shundan keyingina hikoyatning syujet liniyasida asos hisoblangan adolat b-n zulm o‘rtasidagi to‘qnashuv tasvirlanadi.

Shoirning ayrim hikoyatlarining syujeti bevosita undagi asosiy obraz b-n tanishtirishdan

boshlanadi. Bunday hikoyalarda shoir asosiy diqqat-e'tiborini obrazning xarakterini ifodalashga, o'quvchini u b-n yaqinlashtirishga qaratadi. "Bahrom Go'r", "Zayd Zahhob", "Jo'na va Mas'ud", "Mehr va Suhayl" kabi hikoyatlarning syujetiga o'quvchi ulardagi asosiy obrazlarning nomi, kasbi-kori, tashqi qiyofasi b-n tanishish orqali kirib boradi.

N. o'z hikoyatlarida asosiy diqqatni inson obrazini yaratishga qaratdi. Ulardagi obrazlar o'z maqsadi, intilishlari b-n bir-biridan farq qiladi. Shoir obrazlarning dunyosi, ma'naviy qiyofasini ochib berishga alohida e'tibor berdi. Bunda portret, peyzaj, psixologizm kabi turli badiiy tasvir vositalaridan foydalandi.

N. hikoyatlarning kompozitsiya va syujetini ishlashda ham katta mahorat qozondi. Hikoyatlar kompozitsion qurilish jihatidan kichik hajmda bo'lishiga qaramay, katta g'oyaviy mazmunni o'z ichiga olganligi b-n diqqatga sazovordir. Hikoyatlar syujeti ham ularning kompozitsiyasiga mos ravishda ixcham. Ulug' so'z san'atkorining hikoyat yaratishdagi badiiy mahorati barcha shoir va yozuvchilar u-n katta bir maktabdir.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Ғанихўжаева Н. Навоий ҳикоятларида бадиий маҳорат масалалари // Китобда: Навоий ва адабий таъсир масалалари. – Т., 1968; Мирзааҳмедова М. Ҳикоячиликда Навоий анъаналари. // Китобда: Навоий ва адабий таъсир масалалари. – Т., 1968.*

S.O'.

HILOLIY (taxallusi; to'liq ismi: Mavlono Badriddin Hiloliy Chig'atoiy) (taxm. XV asrning 70-yy., Astrobod – 1529, Hirot) – fors-tojik shoiri. Boshlang'ich ma'lumotni tug'ilgan shahrida olib, ilm tahsilini kamolga yetkazish maqsadida 1491-y.da o'sha davrning ilm-u fan va madaniyat markazlaridan bo'lgan Hirotga keladi. Chuqur bilimi, keng dunyoqarashi, noyob iste'dodi tufayli Jomiy va N. nazariga tushib, ularning homiyligida ilm-u ijod b-n qizg'in shug'ullanadi. "M.N." tazkirasida N. uning kelib chiqishi turkiy qavmga mansubligini qayd etadi. "Tuhfayi Somiy" ("Somiy tuhfasi") asarida Som Mirzo ham uning ajdodlari Chig'atoy turklaridan bo'lib, Astrobodga borib, muqim bo'lib qolganligi haqida ma'lumot beradi. Dastlab H. (hilol – yangi oy) taxallusi b-n ijod qilgan, uning she'riy salohiyati yuksakligini ko'rgan N. unga Badriy (badr – to'lin oy) taxallusini taklif qiladi. Shundan keyin u har ikkala taxallusida ijod qilib, Badriddin Hiloliy nomi b-n mashhur bo'ladi. N. uning kelajagiga umid b-n qaragan. "Hofizasi yaxshidur, tab'i dag'i hofizasicha bor. Sabaq o'qumoq taklifi qilibdur, umid ulkim, tavfiq topgay", – deb yozadi va ijodidan namuna sifatida quyidagi matla'sini keltiradi:

Chunon az po fikand imro'zam
on raftor-u qomat ham –
Ki, fardo barnaxezem,
balki fardayi qiyomat ham.

Tarj.: "Ul kelishgan qomat-u chiroyli yurish meni shunchalik oyoqdan qoldirdiki, erta uyoqda tursin, qiyomatgacha o'rnimdan turolmasam kerak".

Chindan ham, u zamonasining yetuk shoiri va fozil kishisi bo'lib etishadi. Xususan, aruz, qofiya va she'r ilmlarida tengi yo'q edi. "M.N."ni fors tiliga tarjima qilgan Faxriy Hirotiyning yozishicha: "She'riyatning barcha jabhalarida mahorat paydo qildi va o'z zamonasining yagonasiga aylandi". Mirzo Haydar ham uning she'r fanida ustozligi-yu devoni el orasida mashhurligi haqida ma'lumot beradi. Zayniddin Vosifiy, Som Mirzo, Xondamir kabi o'z davrining mashhur kishilari H. haqida yuksak fikrlar bildirishgan. Jumladan,

Bobur uning quvvayi hofizasi kuchli bo‘lib, 30-40 ming bayt she’rni, Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviy “Xamsa”larini yod bilishi xususida ma’lumot beradi. She’rlarida haqiqiy va majoziy ma’nolarni mahorat b-n omixta qilgani, ilohiy va dunyoviy ishqni hassoslik b-n kuylagani u-n o‘z davrining Hofizi Sheroziysi deb dong taratgan. Ubaydulloxon Hirotni bosib olganda, xalqqa, ilm-u adab ahliga jabr-u zulm o‘tkazganini ko‘rgan H. unga qarshi 2 ta hajviy ruboiy yozadi. Dushmanlari bu ruboiylarni xonga yetkazishadi va darg‘azab bo‘lgan Ubaydulloxon uni qatl ettiradi. Ubaydulloxon H.ni shialikda ayblab o‘ldirgan, degan ma’lumotlar ham bor.

H.ning bizgacha she’riy devoni, uch dostoni va qofiya ilmiga oid risolasi yetib kelgan. Devon shoirning 421 g‘azal, 4 qasida, 11 qit’a, 32 ruboiy, bittadan muxammas, chiston va soqiynomasini o‘z ichiga oladi. U, xususan, g‘azal, qasida va masnaviyda shuhrat tutgan. “Shoh va darvesh” dostonida majoziy ishq bosqichlari ramz-u timsollar vositasida talqin etilgan. Lekin shohni – ma’shuq, darveshni – oshiq sifatida tasvirlagani u-n Bobur bu asarni “Boburnoma”da tanqid qiladi. “Sifat ul-oshiqin” (“Oshiqlik sifatlari”) dostoni axloqiy-ta’limiy mazmunda bo‘lib, “Xamsa”larning ilk dostonlari – Nizomiyning “Maxzan ul-asror”, Dehlaviyning “Matla’ ul-anvor”, Jomiyning “Tuhfat ul-ahror”, N.ning “H.A.” dostonlariga tatabbu’ tarzida yozilgan va u ham salaflari asarlari kabi 20 bobdan iborat. “L.M.” dostoni ham ushbu xamsanavislarning shu nomli dostonlariga tatabbu’ hisoblanadi. N.ning qator g‘azallariga tatabbu’ yozgan.

H. asarlari asrlar davomida xalq o‘rtasida sevib o‘qilib kelgan. 50 dan ortiq g‘azallari “Shashmaqom” tarkibidan joy olgan. Ogahiy uning “Shoh va darvesh” dostonini, B.Turg‘unov, I.Subhoniy va E.Ochilovlar g‘azal va ruboiylarini o‘zbek tiliga tarjima qilganlar.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Айний С. Асарлар. 8 жилдлик, 8-жилд. – Т.: Бадриддин Ҳилолий. Осори мунтахаб. – Душанбе, 1958; Бадриддин Ҳилолий. Рубоийлар // Минг бир рубоий. – Т., 2009; Бадриддин Ҳилолий. Девон. – Душанбе, 2016; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 2002; Тазкираи Тўҳфаи Сомий. – Теҳрон, 1347 (ҳ.-ш.); Муҳаммад Ҳайдар Мирзо. Тарихи Рашидий (В.Раҳмонов ва Я.Эгамова тарж.). – Т., 2010; Каримов У. Адабиёти тожик дар асри XVI. – Душанбе, 1985; Ҳомидий Ҳ. Кўҳна Шарқ дарғалари. – Т., 1999; Абдуқодиров А. Амир Алишер Навоий. – Хўжанд, 2003; Очилов Э. Ҳилолий // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 11-Ж. –Т., 2005.*

E.O.

“HILOLIYA” – N.ning Husayn Boyqaroning taxtga o‘tirgani munosabati b-n shohni qutlab yozgan 91 baytli qasidasi (1469-y., aprel). Qasida birinchi marta V.Zohidov tomonidan 1959-y. “Sharq yulduzi” jurnalining 6 sonida e’lon qilingan.

Husayn Boyqaro Abusaid Mirzo vafotidan keyin Hirot taxtini egallaganida N. Xuroson sari qo‘shin tortgan Abusaidning o‘g‘li Sulton Ahmadning o‘rdusida edi. Husayn Boyqaro shohlik tojini kiygach, bolalik do‘sti N.ni maxsus manshur (farmon, yorlig‘) b-n poytaxtga chaqirib oladi. Bu haqda “Vaqfiya” asarida shoir “nogoh saltanat gulshanidin inoyat nasimi esa kirishti va xilofat borgohidin hidoyat qosidi yetishti va davlat manshurin ilgimg‘a berdi...”, – deb yozadi. N. Hirotga yo‘l oladi. Husayn Boyqaroga bag‘ishlab “H.” qasidasini yozadi. Mirxondning “Ravzat us-safo” asarida yozishicha, ro‘za hayiti arafasida: “...nozik tabiatining natijasi bo‘lmish va har bayti shohvor javohirga ziynat beruvchi hamda toza durning rashkini keltiruvchi “Hiloliya” nomli qasidasini humoyun bazmiga tortiq qildi. Bu hol adolatnishon xoqon e’tiqodining ortishiga sabab bo‘ldi”.

Qasida osmonga yangi oy chiqqani, taxtga yangi hukmdor o‘tirgani, shunga muvofiq yangi davr kelayotgani tasviri b-n boshlanadi. Nazar goh anglab, goh anglamagan hilolni shoir mahbubasining qayrilma qoshiga-yu o‘zining egik qomatiga, osmon xo‘rozining patiga-yu Bahromning qilichiga, bayroq uchidagi na’lga-yu Atorud

qalamiga navbatma-navbat tashbeh eta-eta, nihoyat bu o‘xshatishlarining barchasini rad qilib, Dorosifat shukuhli shoh xizmatiga qulluq u-n falak qaddini xam qildi, deb lutf etadi. Shoirning uchqur xayoli 9 falakni kezadi. Eng yuksak falakda qalam ahlining homiysi hisoblanmish Utorud yosh shoh madhida bir matla’ bitib maqtanganida N. o‘z matla’si b-n uni hayratga soladi. Bundan xursand holda uyiga kelsa, mahbubasi undan-da yuksak matla’ b-n uni tong qoldiradi. Shoh huzuriga borib, bu uch matla’ning fasohat-u balog‘atda bir-biri b-n musobaqa qilishini zavq-u shavqqa to‘lib aytib berganida nozikta’b hukmdor badiha tarzida ijod qilgan hammasidan betakror matla’si b-n uni qoyil qiladi.

Shundan so‘ng N. Husayn Boyqaro ta’rifiga o‘tib, uni shohlar darveshi-yu darveshlar shohi deb ulug‘laydi:

Shoh Abulg‘oziy, saodat axtari Sulton Husayn –
Kim, quyoshni zarra der ko‘rgan sipehri hashmatin.

Shohlar shohi demay, ul shohlarning shohikim,
Har biri yuz shohlar shohicha tutqay muknatin.

Shohlig‘da g‘oyati darveshlig‘din ko‘rmayin,
Bo‘r’yoyi faqrcha zarkash sariri rif’atin.

Shohlar darveshi-yu darveshlar shohiki, Haq
Shoh qildi suratin, darvesh qildi siyratin.

Keyingi baytlarda Husayn Boyqaroning xilqati va fazilati, jasorati va saxovatini madh etib, oy to‘lishib borgani sari uning davlati ham tobora mustahkamlanishi, o‘zining esa umri uzun bo‘lishini tilaydi:

Har kunung bayram bo‘lub,
joning hilol o‘lsun mudom,
Ko‘rmagil beaysh umrung muddati bir soatin.

Nozik taxayyul, betakror syujet asosiga qurilgan, badiiy san’atlarga boy bu qasida shoir mahoratining o‘ziga xos bir qirrasini namoyon etadi va ijodiy yuksalishida muhim o‘rin tutadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳилолия. ТАТ, 10-жилдлик, 3-жилд. – Т., 2011.; Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. – Т., 1961; Рустамов Э. Узбекская поэзия в первой половине не не XV века. – М., 1963. Кадырова М. Касыды Алишера Навои. – Т., 1969; Алишер Навоий: Қомусий луғат. 1–2-жилдлар. – Т., 2016; Сирожиддинов Ш., Юсупова Д., Давлатов О. Навоийшунослик. – Т., 2018.*

M.A.

HIMMAT (ar.) – saxovat, javonmardlik, oliyjanoblik, muruvvat, g‘ayrat, niyat, xohish-istak, azmu shijoat, uning ziddi esa baxil, ziqna, xasis kabi so‘zlardir. H. insonning kamoloti, bag‘rikengligi, mehrini ko‘rsatuvchi noyob fazilatlardan biri hisoblanadi. Sharq mumtoz adabiyotida qalam ahli lirik va nasriy asarlarida kishilarni himmatli bo‘lishga chorlab, ta’sirli va didaktik xarakterdagi she’rlar, hikoyatlar bitgan. Bandaning yetuklik va kamolga erishish ilinjida qalbi, butun borlig‘i b-n Haqqa yo‘nalishi. “Faqrnoma”da H. haqida shunday deyiladi: “Luqmoni Saraxsiy aytur: Faqr shohbozi himmat turur, har kimga qo‘ndi ul kishi Arshka parvoz qildi”. Mutasavvif olim “Ehson ul-komil” asari muallifi Abdulkarim al-Jilining fikricha, H. muridning meroji, oriflarni Haqqa eltuvchi Buroqdir. Yunus Emro haqidagi manoqiblarda Yunus Emro Xoji Bektoshi Valiydan bug‘doy so‘raganida Pir Yunusga bug‘doy o‘rniga himmat taklif qiladi, biroq Emro fikrida qat’iy turib, bug‘doy oladi. Keyinroq xatosini anglab tavba qilarkan, himmat so‘raydi. Ya’ni, H. tariqat ahli u-n muhim xislat sanalgan.

N. ham “X.”, “M.Q.”, “T.A.H.” singari asarlarida hamda “X.M”da jamlangan she’rlarida kishida ijobiy kayfiyat tug‘diruvchi saxovat, ehson haqida gapirganda, uni faqat himmati baland, qo‘li ochiq kishilargina qilishini ta’kidlab ko‘rsatgan. Shuningdek, o‘zi yaratgan Hotami Toyi, Barmak, Axiy, Farrux singari obrazlar talqinida ushbu fazilatni sharaflagan va zaharxandalik b-n himmatsiz kishilarni odam o‘rnida ko‘rmaslik kerakligini ham aytgan. M-n, “H.A” dostonining karam fazilatiga bag‘ishlangan beshinchi maqo-

latida saxovatpeshaligi va H.i b-n nom chiqargan afsonaviy shaxs Hotami Toyiga bag‘ishlangan maxsus hikoyat keltirib, uni himmat va saxo ahlig‘a peshvo erdi, deya ta’riflaydi. Quyidagi baytlar b-n shoir fikriga xulosa yasaydi:

Himmat agar bo‘lsa Navoiy sanga,
Banda durur Hotami Toiy sanga.

H. egalari tabiatan ulug‘ va pok zotlar bo‘lgani bois dunyo matohiga mayl qilmaganlar. Zero, H. insondagi yuksak ma’naviy-axloqiy fazilat bo‘lib, neki murod-u maqsadi bo‘lsa yetganlar.

Kishikim ichsa himmat bazmidin jom,
Topar ul jomdin komin saranjom.

Ne qushkim bo‘lsa himmatdin qanoti,
Emas rast oshyong‘a iltifoti.

N. H.ga ta’rif berar ekan, “raxshi himmat”, “himmat qanoti”, “himmat qushi”, “himmat sipohi”, “bazmi himmat”, “himmat kamandi”, “dasti himmat” kabi safatlashlarni keng qo‘llaydi. H.i yuksak zotlar zohirbinlikdan yiroq bo‘lib, kimsani uning suratiga qarab baho bermaydilar, kambag‘alni ham boyni ham teng ko‘radilar. H. ularga bir qanot, vujudini turli illatlardan poklovchi, botin sofligiga erishtiruvchi kimyodir: “Chu himmat erur kimiyoyi vujud”. Shoir “L.T.” asarida H. insonga zeb bo‘lish b-n birga nafsni tarbiyalashda, uni tiyishda muhim vosita ekanini aytib: “*Nafsning ta’dibi himmatdin durur*”, – deydi. H.i sust kimsalarga yo‘ldosh bo‘lish azob, chunki ular nafaqat o‘zlari, balki yonidagi hamrohini ham ko‘kka parvoz qilishga qo‘ymaydi. Shu bois “Sust himmatlig‘ bila uchmog‘ ne mumkin”, – deya uqtiradi mutasavvif shoir. N. “S.I.” dostonining XVI bobi “Himmat humoyining baland-parvozlig‘i ta’rifiga bag‘ishlangan:

Birovkim anga himmat o‘ldi baland,
Erur olam ahli aro arjumand.

Kishi naqdi gar bir qaro mis emas,
Agar himmati bo‘lsa muflis emas.

Ani angla mufliski, yo‘q himmati,
Chu yo‘q himmati, yo‘q aning hurmati.

N. fe’li yomon, axloqi sust, himmatsiz kimsalarni muflis deydi. Insonning qora mis chaqachalik boyligi, davlati bo‘lmasa ham H.i baland bo‘lsa, u muflis bo‘lmaydi, H.i baland insonlar xalq orasida hurmati baland bo‘ladi. Yuksak H. egalari olam ahlidan etgan turli ranj-u azoblarga parvo qilmaydilar, faqirlikni moddiyat, boylik va shohlikdan ustun qo‘yadilar:

Birovgaki himmat qilur yorliq,
Gadoliq tilar, yo‘q jahondorliq.

Chu himmat baland o‘ldi ersa faqir,
Ko‘ziga erur asr shohi haqir.

N., deyarli, har bir asarida H. haqida atroflicha to‘xtalgan. Jumladan, “L.T.”da H. er kishilarning chinakam boyligi, ziynatiga ekanligiga ishora qilgan:

Er kirar er sonig‘a himmat bila,
Er emas faxr aylag‘on ziynat bila.

N. o‘z tazkiralarida ulug‘ siymolar, oriflar va qalam ahli haqida ma’lumot, xabar yozar ekan, ularning H.i xususida alohida eslatmalar bitganini ko‘rish mumkin. “N.M.”da Abubakr Tamastoniy (q.t.s.)ning H. borasidagi quyidagi fikrini keltirilgan: *“... Doimo himmatli bo‘lki, u barcha ishlarning kuchi va manbayidir*”. Shu bois shoir “Bir Xizrvash himmatin berma ilikdin”, desa, yana bir o‘rinda “Tavsani himmat bila qat’ aylagil dashti fano”, deydi.

N. “N.J” asarida ham H.ga maxsus to‘xtalgan: “Uluvv il-himmati minal-iymoni – Oliy himmatlik – iymondandir”, – deb ta’kidlaydi:

Gar bo‘lsa asosi qasri davlat oliy,
Iymong‘a bo‘lur ravoni hashmat oliy,

Himmat topar iymon bila rutbat oliy,
Iymondin erur gar o‘lsa himmat oliy.

Insonning ulug‘ligi uning himmatidan bilinadi:

Har kimsaki iqbol aning yovaridur,
Har yonki yuz ursa, himmati rahbaridur,

Himmat duri faxr tojining gavharidur,
Chun himmati odam o‘g‘lining sarvaridur.

“M.Q.”da H.ga alohida o‘rin ajratib, H.ni saxovatdan ustun qo‘yarkan, saxovat insonning jismi bo‘lsa, H. unga ruhdir, deb ta’riflaydi: “*Himmat ahlig‘adur saxovat ixtisosi va bu ikki sharif sifat valoyat xosi. Saxovat odamig‘a badandur va himmat anga ruh va himmat ahlidin olamda yuz ming futuh. Himmatsiz kishi er sonida emas, ruhsiz badanni kishi tirik demas. Oliy himmat shohbozedur baland parvoz va behimmat sichqon sayyode yurutachi toz...*”

N. tanbehlarining birida inson qo‘l urgan har bir ishning nizomi H.ga qurilishi lozimligi haqida shunday bayt bitgan:

Ishim himmating birla topsun nizom,
Payom ushbu erdi manga, vassalom.

N.ning sharafli nomi tarix zarvaraqlarida Temuriylar Uyg‘onish davrining eng saxiy, H.i baland mulkdori sifatida yozilgan. Bobur “Boburnoma” memuarida bitganidek, u tengsiz darajadagi murabbiy va muqavviydir.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-жилдлар. – Т., 2011; Köprülü Fuad. Turk edebiyatinda ilk mutasavvuflar. – Ankara, 1976; TDV İslâm Ansiklopedisi, – İstanbul, 1998, C. XVIII. Иброҳим Ҳаққул. Занжирбанд шер қошида.– Т., 2021.*

B.R., E.Q.

“HIMMAT AHLIKI ERUR...” – N.ning “G‘.S.” devonidan o‘rin olgan qit’asi:

Himmat ahliki erur tuzluk aro sarv kibi,
Dahr bo‘stonida sarsabzadur-u ozoda.
Ulki suv yanglig‘ erur past nihod-u kajrav,
Chekib afg‘on anga tinmaslig‘ erur omoda.

Himmat ahli kim? Eng avvalo, saxovatli kishilar. Shuning u-n N. “himmat ahlining ihtisosi – saxovatdur”, – deb belgilagan. Himmatli bo‘lmoq – pokizalik, himmat – qashshoqlikda ham tubanlik qilmaslik, har qanday vaziyatda ham el fayzi va rohati u-n qayg‘urishdir. Uning chirog‘i – iztirob. Inson ruhida shu chiroq nurlari porlamasa u hech payt xolis himmat ko‘rsata olmaydi. N. ushbu qit’ada himmatli zotlarga xos asosiy bir fazilatga diqqatni qaratgan. Bu fazilat – to‘g‘rilik. Sarv – tik o‘sadigan xushqomat bir daraxt. U qishin-yozin yam-yashil. Barglaridan anvoyi hidlar taralarkan. N. himmat ahlining to‘g‘riligini sarvga qiyoslagan. Demak, himmatli odamlar borki, bu dunyo obod, ezgulik barglari sarg‘aymasdir. Dahr bo‘stonida ne o‘zgarishlar, neki tebranishlar sodir bo‘lmasin, ular rostlik e’tiqodlarida sobit qolaveradilar. Bundoq qaraganda, qaysidir pastliklarda sharqirab oqayotgan suv kimlarningdir chanqog‘ini bosar, shu suv sharofatidan qay bir erlarda yashillik unar. Bu ham himmat. Ammo N. suv yanglig‘ tubanliklarda egri yo‘llardan harakat qilib, tinmasdan shovqin soladigan bandalarni himmat ahli qatoriga qo‘shmaydi. Bunda sabab aniq, albatta. Birinchidan, himmatli tabiati pastlikka ko‘nikishnimas, yuksakka ko‘tarilishni talab etadi. Shu ma’noda uni “baland parvoz lochin” ham deyish mumkin. Ikkinchidan, u zarracha bo‘lsin, egrilik b-n chiqisha olmaydi. Uchinchidan, u hovliqma jilg‘a singari “afg‘on” chekuvchi emas. Xullas, himmat to‘g‘risida fikrlaganda mana shu haqiqatlarni ham unutmaslik kerak.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Ҳаққул И. Касби камол ўзни танишдир. – Т., 2021.*

I.H.

“HIND DARYOSIDA ERDI TOJIRE...” – “L.T.” dostonining 71-fasli shunday misralar b-n boshlanadi. Bunda N. islom, shuningdek, tasavvuf ta’limotining muhim jihatlaridan biri – musulmonning zohiri va botini muvofiq bo‘lishi lozimligi g‘oyasni ilgari surgan. Qushlardan yana biri – o‘rdak safar azoblariga toqati etmay, uzrxohlik qilib, hayoti suv b-n mahkam bog‘liqligi, undan ayri qolsa, suvdan yiroq tushgan baliq holiga tushishini aytadi. U zoti suv ichida taskin topib, shuning u-n pok tutib yurishni odat qilganini, suv tufayli poklikni qozonganini, hatto suv ichida mavjdan joynamoz, o‘sha ko‘zguda maqsadi yuz ko‘rgizishini iddao qiladi va shunday ekan, boshqa yoqqa uchib ketish xato, deb yo‘ldan qaytmoqchi bo‘ladi. Shunda Hudhud o‘rdakning qarashlari yanglishligini ta’kidlab, aqlini suv yuvib ketganini, suvga joynamoz soldim, degani nihoyati bir yolg‘on ekanini, hamma vaqt suvda yurgan o‘zini pokman, gunohlardan xoliman, deb hisoblasa, adashadi va “Haqiqiy er bo‘lsang, fano dengiziga sho‘ng‘igin va o‘zingni Haqiqiy Yorga oshno qil” deb so‘zini tugatadi. Shundan keyin Hind daryosi uzra savdoda bardavom tojirning qismati O‘rdakka ibrat qilib ko‘rsatiladi. N.ning tasvirlashicha, savdogar suv yo‘li orqali oldi-sotdi qilishni bexatar sanab, doim dengizda safar qilar, biror maskanda o‘n kundan ortiq turmas edi. Yillar davomida bir necha marta Makka atrofini suv yo‘li orqali aylanib o‘tsa-da, zimmasidagi farzni – hajni ado qilishdan qochar edi. Odamlar unga shu bahona haj ham qilib ol, deyishlariga qaramasdan, boylik hirsi ko‘zlarini ko‘r etib, uni adashtirdi. Bir kuni tojirning kemasi daryoga cho‘kib, o‘zi esa baliqlarga yem bo‘ldi.

N. mazkur bo‘limda ogoh etishicha, suvda yurgan odam har nedan pok degani emasdir, uning amali, qalbi ham to‘g‘ri bo‘lishi, bundan g‘aflatda qolgan kimsa suvda safar qilishni bexavotir bilib, suvga g‘arq bo‘lgan kishining holiga tushishi muqarrar. Chunonchi, o‘rdak har vaqt suvda bo‘lganim u-n toza, g‘uborlardan forig‘man, deb adashdi. N. faqat tashqi ko‘rinishiga e’tibor qilib, ichki olamini unutish kishini maqsadidan chalg‘itishi, solikni yo‘ldan toyishiga sabab bo‘lishini chiroyli yo‘sinda tasvirlab bergan.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

S.O‘.

HINDISTON (Hind) – Ma’lumki, H. jahon tamadduni, tarixi va siyosiy maydonida hal qiluvchi o‘rin tutgan qadimiy mamlakat sanaladi. Bashariyat turmush tarzida, ayniqsa, diniy hayotida H. b-n bog‘liq hodisalar talaygina. Shuning u-n bo‘lsa kerak N.ning ijodiy merosida ham H. jug‘rofiy atamasi tez-tez uchraydi. Chunonchi, uning “T.A.H.” asarida *“...Odam va Havoni bihishtdin chiqardilar. Va Hindiston mulkida birbiridin ayru tushtilar...*” deya yerda ilk hayot boshlagan inson farzandlarining qismati aynan H. b-n bog‘liq bo‘lganiga urg‘u beradi. Yana, shuningdek, N. tarix kitoblariga tayanib yozishicha, Odam ato va Momo Havo H.da dafn qilingan: “*...Ammo mavlono sharaful milla vaddin Ali Yazdiy “Zafarnoma” muqaddimasida aytibdurkim, Odam (a.s.)ni Shis g‘usl berib, namoz qildi va Hindistonda dafn qildi*”.

H.ning madaniy-ma’rifiy markaz sifatidagi holati Beruniyning “Hindiston” asarida batafsil yoritilgan. Islomdan keyingi davrlarga qaralsa, mamlakatning shimoliy qismlari XI asrlarda G‘aznaviylar qo‘liga o‘tgan bo‘lib, XIV asrning oxirlaridan e’tiboran temuriylar hukmronligi ostida bo‘lgani N.ning “S.”dan olingan mazkur baytlaridan ma’lum bo‘ladi:

Aqli har ishta raso, tab’i salim
Kim, erur naqdi Husayn Ibrohim.
Mulk aning adlidin o‘lsun bo‘ston,
Bar hadi kishvarining Hindiston.

Hamisha xalqning farovonligi, o‘lkalar obodligi g‘amida bo‘lgan N. aqli raso, donishmand temuriy shahzoda Husayn Ibrohimga boshqaruvni odilona yuritib, H.ni bog‘-u bo‘stonga aylantirishiga umid qilganini anglash mumkin. Zero, H. nomi N.ning xamsanavis ustozi Xusrav Dehlaviy tug‘ilib o‘sgan joy sifatida hamisha diqqat-e’tiborda bo‘lgan. Jumladan, “H.A.”dan olingan quyidagi

baytda Dehlaviyning nazmi savodi – oq qog‘ozga bitgan dostonlarining har biri bir H.ga tengdir, deya go‘zal mubolag‘aviy o‘xshatish qiladi:

Nazmi savodi aro har doston,
O‘ylaki, bir kishvari Hinduston.

Hinduvi chobuq demakim, royi hind,
Kilki uchi mamlakat oroyi hind.

N. qora rangni, qora siyohda yozilgan satrlarni, qora siyohga bulangan qalam uchlarini, qaysidir ma’noda, H. xalqining qoraligi, odamlarining chaqqonligi b-n bog‘lab tasvirlaydi va shunga ishora qiladi.

Shuningdek, Dehlaviyning “tig‘i zabon” b-n butun H.ni fath etganini, “X.” yozish b-n H.dek ulkan mamlakatga dovruq solganini ta’riflar ekan, uning yuksak badiiy mahorati, keng qamrovli epik tafakkur iqtidorini madh etadi:

Chekib Xusrav dag‘i tig‘i zabonni,
Yurub fath aylasa Hindustonni.

N.ning lirik asarlarida ba’zan yorning go‘zal, oppoq yuzidagi qora xoli, qora ko‘zlari kumush (oppoq) taxtda o‘tirgan qora rang H. shohiga yoki qoralik sifati b-n H. xalqiga o‘xshatiladi.

Xoli ruxsoring kumush masnadda Hinduston shahi
Ollida saf tortibon xat, tobi’u mahkum erur.

Umuman olganda, H. atamasi kechgan baytlarda bu nomning qora rang b-n bog‘liq, aloqada ekanligi kuzatiladi. N.ning “T.A.H.” asaridagi ma’lumotlarga ko‘ra, ma’shuq go‘zalligini H. va qora rang b-n bog‘lash tarixiy asosga ega: Chunki, “Nuh (a.s.) Turon va Xo‘tanni Yofasqa berdi va Eronni Somg‘a va Hindistonni Xomg‘a...”. N. ning mazkur asaridan bilamizki, Nuh (a.s.)ning Xom ismli o‘g‘li otasiga beadablik qilgani u-n rangi qorayib ketgan va unga to‘fondan so‘ng H. mulk qilib berilgan. O‘shandan buyon X.dan tarqalgan nasllar qora ranglidir.

Ayladi bir xoli hindu ro‘zgorimni qaro,
Ey Navoiy, tong yo‘q,
etsam Hind ila Kobul havas.

Tasavvuf lug‘atlarida aytilishicha, xolning qora rangga tashbeh qilinishi g‘aybiy haqiqatdir, idrok va shuurdan panadadir; mabda’ va kasrat intihosining haqiqiy vahdat nuqtasidir. Va yana Mutlaq Zot vahdatidan kinoya ham deydilar. Qora xol deganda, ba’zan, g‘ayb olami tushuniladi. Agar baytni tasavvufiy nuqtayi nazardan tahlil qilsak, demak, oshiqni Mutlaq Zot o‘ziga maftun qiladi va uning hayotidan halovat yo‘qoladi, qalbidan bu dunyo hoy-u havaslari barham topadi. Shu bois, H. va Kobullarni kezib, dardiga davo istasa, hech ajablanadigan joyi yo‘q. Ehtimol, u yurt kezganda, bir murshidi komil topib maqsadiga yetar va bayt zamirida shunga ham ishora bor.

Tarixiy asarlar azal-azaldan turk yigit va qizlarining kelishgan, jasur, pahlavon va yetuk bo‘lganlariga guvohlik beradi. Zotan, qora zulf, qora qosh-u qora ko‘z, yana tim qora xol ham oq nafis tanli turk qizlarining go‘zallik sifatlari sanalgan. Shu bois N. turk go‘zallarining beqiyos dilbarliklari, xususan, yuz-u ko‘zlarini to‘sib turgan qaro sochlari, hatto, qora tanli H. xalqi o‘rtasida ham g‘avg‘o chiqaradi, deya nihoyatda ta’sirchan mubolag‘a qiladi:

Ko‘zidin zulf agar to‘lg‘ondi, tong yo‘q
Ki, solmish turk Hindistong‘a yag‘mo.

N. o‘zining “N.M.” tazkirasida ham H. atamasiga ko‘p marta murojaat qilgan, Jomiyning “Nafahot ul-uns” tazkirasiga kirmay qolgan 36 nafar Hind mashoyixlarini, o‘z tazkirasiga kiritib, ularga alohida fasllar ajratgan. Zotan, N. asarining muqaddimasida “hind mashoyixi sharhi ham oz” zikr qilingani u-n “mumkin bor tilab topib, hazrat qutb ul-avliyo Shayx Farid Shakarganj (q.a.)din so‘nggi mashoyixgacha ilhoq” qilganini aytib o‘tadi. Jumladan, Pahlavon Mahmudga bag‘ishlangan fiqrada H.ni tilga oladi, Shayx Farid Shakkarganj (q.s.a.)ni H. mulkining shayx ul-mashoyixi ekanini ta’kidlaydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

S.R.

HINDU – Hindistonda yashovchi xalqlardan biri. Ko‘p hollarda butun Hindiston aholisiga nisbatan ham hindu atamasi ishlatiladi.

N.ning “M.L.” asarida hind eli va tili xaqida mulohazalar bildirilgan. N. bu xalqni va uning tilini “Hindu” deb ataydi. H. N. lirikasida ko‘p qo‘llanuvchi obrazlardan biridir. Shoirning “N.Sh.” devonida “Hindu” radifli g‘azal ham bor.

Xuddi lo‘li obrazi singari, N. H. obrazidan ham barcha insonlarning tengligi, xususan, muhabbatda milliy mansublikning ahamiyati yo‘qligi haqidagi qarashlari va fikrlarini badiiy ifodalash u-n foydalanadi:

Ko‘ngulni olsa malohat bila tafovuti yo‘q,
Xitoiy o‘lsun-u yo armani va yo hindu.

Shuningdek, shoirning lirik she’rlarida H.larning tashqi ko‘rinishi, mashg‘uloti, turmush tarzi b-n bog‘liq unsurlardan mohirona foydalangan holda ajoyib tasvirlar yaratilganini ko‘rishimiz mumkin. M-n, H.larning rangi qoraligi tufayli shoir ko‘p o‘rinlarda yor sochi yoki ko‘zini H.ga qiyos qiladi:

Zulfing ochilib orazi diljo‘ bila o‘ynar.
Hindubachaye sho‘xdurur, suv bila o‘ynar.

Yoki:

Qaro ko‘zunki vafo aynidin menga boqmas,
Ajab emastur, agar bo‘lsa bevafo hindu.

Quyidagi baytda H.larning mashg‘uloti b-n bog‘liq o‘xshatish qo‘llangan:

Ko‘z qarosin o‘ynatur har lahza ul mardumni ko‘r,
Hinduyedekkim erur oyini qalqon o‘ynamoq.

Xuddi shunday o‘xshatish vositasida yaratilgan tasvirni mana bu baytda ham ko‘rish mumkin:

La’l uza xat ichra holingdur nihon yo hinduye,
Sabzada yoshundi shakar qasdig‘a aylab kamin.

Yuqorida tilga olingan “hindu” radifli g‘azalining maq’tasida N. o‘zini turk H.siga, ya’ni Xusrav Dehlaviyga o‘xshatadi va bu b-n yana bir bor ulug‘ shoirga o‘z ehtiromini namoyish etadi:

Navoiy etti o‘zin o‘yla turk hindusi,
Ki ahli Chinu Xito bo‘ldilar anga hindu.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар.10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Наводир уш–шабоб. 10 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; ЎзМЭ. 11-жилд. – Т., 2005.*

Q.E.

“HINDUYI ZOHIR QILIB NAQSH-U NIGOR...” – N.ning “L.T.” dostonidagi hikoyatlardan biri. Hamisha o‘ziga zeb berib, chiroyini ko‘z-ko‘z qilib, huzurlanishga o‘rganib qolgan Tovus safarning ilk fursatlaridayoq mashaqqatlardan cho‘chib, to‘tidan so‘ng birinchilardan bo‘lib uzr so‘rashga tutinadi. U Hudhudga: “Men qasr va gulshanlarga ziynat beruvchi qushman, mening naqsh va ranglarimdan olam ahli hayratga tushadi, suratim gulshanga oroyish bersa, yurishim odamlarga osoyish bag‘ishlaydi. Bog‘lar men tufayli xazon paytlarida bo‘stonga, o‘rmonlar esa fasli gulistonga aylanadi. Agar rang-barang qanotlarimni yozib, jilva qilsam, go‘yo boshdan-oyoq Iskandar oyinasi namoyon bo‘lgandek bo‘ladi”, deya maqtana boshlaydi. Hudhud shunda Tovusga “Ey, jaholat ahli kabi har narsani havas qiluvchi!” deya qattiq malomatlar b-n so‘z boshlaydi. Uning bu irodasizligi faqat devonalar va aqlsiz yosh bolalarda uchrashi, iymonli odam tashqi go‘zalligi b-n g‘ururlanmasligi, agar shun-

day qilsa, uni odam qatoriga qo‘shib bo‘lmasligi, noz va husn faqat dilbar qizlarga yarashishi, er kishi u-n esa dard va mashaqqat fazilat sanalishini uqtiradi. Yo‘lboshchi qush bu ishi u-n tovus har qancha masxara qilinishga loyiq, deb sanaydi va o‘zini har ko‘yga solib, ko‘p hunarlar ko‘rsatgan hinduning qanday uyatli ahvolga tushib qolgani haqidagi hikoyani so‘zlab beradi. Bu masxaraboz o‘z boshiga kungurali toj qo‘yib, toj va kiyimlariga tillarang yarqiroq modda – kimson b-n zarhal beradi. Yonidagi nog‘orachi va qo‘shiq aytib, o‘yin tushuvchi bir to‘da hindlar b-n qo‘li va boshlarini hindlarga xos yo‘sinda tebratib, raqs tushib, ana shu tarzda maydonda zo‘r hangoma ko‘rsatadi. Ko‘rinishlari bo‘stonga oroyish bergudek go‘zal, jilvalari esa Hindiston tovusidek masxarabozlarning atrofi bir gala beboshlar to‘dasining g‘ala-g‘ovuri b-n to‘lib-toshadi. Shu mahal tartib nazoratchilari – muhtasiblar kelib, firibgar va maqtanchoq hinduni tutishadi. Uning nog‘orasi b-n tojini urib sindirishadi va yalang‘ochlab, darra b-n rosa savalashadi. Shu tarzda uning san’ati kishilarga ibrat bo‘lib, ana shu xil qismat uning tojiga “ziynat” bo‘ladi.

N. bu faslda komil iymon egasi zohir go‘zalligi b-n g‘ururlanmasligi lozimligidan ogoh etadi. Zero dostondagi har bir hikoyat insonning to‘g‘ri yo‘lda sobit qolishga chorlovchi xitobnomadir.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

S.O‘.

HIRAVIY MIRALI (t.y.n. – vafoti 1544/45, Buxoro) XV–XVI asr Hirot xattotlik maktabi vakili. Hirotda tug‘ilib, o‘sha joyda tahsili ilm oladi. U Mirboqir Hiraviyning o‘g‘li, Sulton Ali Mashhadiyning kuyovi Zayniddin Mahmuddan xattotlikni o‘rgangan. U ko‘chirgan kitoblarida “Ali ul-kotib”, “Ali” “Mirali Hiraviy”, deb imzo qo‘gan. “Kotib ul-sultoniy” va “Sultoniy” unvonlariga sohib bo‘lgan. H. bir necha yil Hirot xattotlik maktabida rahbarlik qiladi. Uning boshchiligida ko‘p sonli xattotlar Xusayn Bayqaro va N. xizmatida qo‘lyozmalarni ko‘chirish b-n shug‘ullangan. X. Abdurahmon Jomiy va N. b-n do‘stona munosabatda bo‘lgan. 1519-y.i Ubaydulloxon taklifiga asosan Hirotdan ko‘p miqdordagi hunarmandlar Buxoroga tashrif buyurgan, shular orasida H.. ham bor edi. U “Buxoro nasta’liqi” xattotlik maktabini yaratib, hatto Sulton Ali Mashhadiydek go‘zal va undan ko‘ra soddaroq (o‘qlishi osonroq) kitobat qilishga erishadi. Ubaydulloxon o‘g‘li – Abdulazizxonga muallimlik qiladi. H.ga podsholik tomonidan “Qilqalam” unvoni beriladi. U “Midod ul-xutut” nomli xat turlari va yozilish usullari haqida risola yozadi.

H. shogirdlaridan o‘g‘li Mirmuhammad Boqir, Mirhusayn Buxoriy, Ma’sumi Buxoriy, Mirmuhammad Samarqandiy, Mirak Buxoriy, Sultonmaqmud Hiraviy va boshqa ko‘plab xattotlar yetishib chiqadi. U shoir ham bo‘lgan, ba’zi she’rlari bizgacha yetib kelgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Садр Зиё, Тазкираи хаттотон. ШМК-1304; Ҳасанхўжа Нисорий, Музаккири-ахбоб. – Т., 1993; Махдий Баёний, Ахволи ва осори хушнависон. – Техрон, 1345.*

Muh.A.

HIROT (Hiriy) – N. tug‘ilgan shahar. Hiriy Rud daryosi bo‘yida joylashgan. Y.E.Bertelsning yozishicha, qadimgi “Avesto” va ahmoniylarning mix yozuvlaridagi Harayva shu Hirotdir. Yunonlar uni Areya deb ataganlar. Iskandar Zulqarnayn tomonidan qurilgan Aleksandriya Areyon ham shu yerning o‘zida joylashgan. H. arablar davrida va undan keyingi mustaqil sulolalar vaqtida o‘z ahamiyatini saqlab keldi. Mo‘g‘ullarning H.ga bergan zarbasi juda og‘ir bo‘lgan. 1222-y.i Chingizxonning o‘g‘li Tuli shaharni egallab, aholisini batamom qilichdan o‘tkazadi. XIV asrda uni kurtlar egallab, bir qadar tiklashga muvaffaq bo‘lganlar. H. 1383-y.da Amir Temur saltanati tasarrufiga o‘tgan.

O‘rta asrlarda Xurosonning poytaxti hisoblangan. Temuriylar davrida fan, madaniyat markazi bo‘lgan. Shohrux mirzo hukmronligi davri-

da shaharning siyosiy, iqtisodiy, madaniy markaz sifatidagi mavqeyi yanada ortgan. Shohrux mirzo, Gavharshodbegim, Boysung‘ur mirzo, Abulqosim Bobur va boshqalar shaharning obod va ko‘rkam bo‘lishi u-n katta kuch-g‘-ayrat sarflaganlar, ajoyib obidalar, madrasalar, masjidlar, bog‘lar va saroylar bunyod etganlar. Keiynchalik bu ishlar Husayn Boyqaro va N. tomonidan yanada kengroq miqyosida davom ettirilgan. Shuning u-n ham Bobur “Boburnoma”da “Sulton Husayn mirzoning zamonida mirzoning tasarrufidin va takallufidin Hiriyning zeb va ziynati birga o‘n, balki yigirma taraqqiy qilib edi”, – deb yozgan.

N. hayotining asosiy qismi H.da o‘tgan. Buyuk shoir o‘z ona shahrini benihoyat sevgan, musofirlikda yashagan yillarida (Samarqandda, Astrobodda) uni sog‘ingan va qo‘msagan. U H. ning gullab-yashnashi, obod va ko‘rkam shahar bo‘lishiga intilgan va ko‘plab binolar qurdirgan. Ularning eng mashhurlari “Ixlosiya” madrasasi, “Xalosiya” Honaqosi, “Safoiya” hammomi, “Shifoiya” deb atalgan dor ush-shifo, “Qudsiya” masjidi va boshqalardir. Shoir ona shahrini so‘z vositasida ham ulug‘lagan, madh etgan. “H.A.” dostonining o‘n to‘qqizinchi maqolatida u H. sha’nida shunday baytlar bitgan:

Yetti falak naqdig‘a ganjina ul,
Yetti aqolim tan-u – siyna ul.
Anga jahon ko‘ksi kelibdur sifot,
Anda ko‘ngil xittayi poki Hirot.

Maqolatda shoir batafsil H.ning barcha go‘-zalligini, u yerdagi binolarni, bog‘lar, bozorlarni tasvirlaydi. Jumladan, Jome’ masjidi haqida ushbu baytlarni bitadi:

Masjidi Jomi’ yana bir olame,
Toqi yana bir falaki a’zame.

Shahr – jahon, anda bu ham bir jahon,
Ikki jahon bir-biri ichra nihon.

Maqolatdagi har bir bayt, har bir misrada N.ning o‘z shahriga bo‘lgan mehri, unga intilishi va talpinishi sezilib turadi. Shoir shahrining bu obodligi, go‘zalligi o‘z-o‘zidan bo‘lmaganini ham e’tirof etadi va bunda Husayn Boyqaroning xizmatlarini alohida ta’kidlaydi.

N.ning “T.M.A.” asarida Hirot tarixiga oid fikrlar mavjud. N.ning yozishicha, Hirot Iskandar Zulqarnayn tomonidan bino qilingan. “S.I.” dostonida shoir Iskandarning yurishlari haqida hikoya qilar ekan, uning Xurosonga kelishi, Hirot shahrining bunyod etilishiga bag‘-ishlangan bir qator baytlarni bitadi. Xurosonni yoqtirib qolgan Iskandar bu yerda jannatdek bir shahar qurdirishni niyat qiladi va rejasini amalga oshiradi. Donishmandlar bu shaharga qo‘yish u-n har xil otlarni tilga oladilar. Hirot oti Iskandarga ma’qul keladi va shahar shu nom b-n ataladi. Oddiy kishilar esa Hiri deb ataydilar. Shoir ona shahrini benihoyat ulug‘-laydi va uning hech qachon zavol topmasligini tilaydi. “S.I.”da H.ga bo‘lgan mehrini shunday ifodalaydi:

Xuroson badandur, Hiri jon anga,
Hiriy jon, badandur Xuroson anga.

H.ning tabiati, ob-havosi N.ga juda yoqar, uni dunyoning eng go‘zal shaharlaridan biri deb hisoblar, sevar, bihishtdan ham ortiq ko‘rar edi. U bir g‘azalida yozadi:

Navoiy o‘lmasig‘a ozimi Iroq-u Hijoz
Magar nazohati mulki Hiriy erur bois.

N. devonlarida H. sha’niga aytilgan bu xil satrlar ko‘p:

Navoiy, behisht ichra farog‘at yo‘lin so‘rdung,
Namudoridur oning Hirining xiyoboni.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. 10 жилдлик. 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Шарафутдинов*

А. Алишер Навоий. Биографический очерк. – Т., 1939; Ўзбек адабиёти тарихи. 5-жилдлик, 2-жилд. – Т., 1977.

Ab.H., Q.E., B.R.

HIROT JOME MASJIDI Hirotdagi XIII – XIV asrlarga mansub me'moriy yodgorlik. Shaharning shimoli-sharqida joylashgan bo'lib, pishiq g'ishtdan yasalgan. Shoh G'iyosiddin Muhammad ibn Sam hukmronligi davri (1193–1202)da qurila boshlanib, o'g'li va vorislari tomonidan nihoyasiga yetkazilgan. 4 ta katta ayvon (25 m balandlikdagi 4 ta katta minora b-n birga), 5 ta darvoza, 460 ta gumbaz va bir necha madrasadan iborat. Masjid atrofini binolar o'rab olgan. Masjid sahni marmardan, o'rtasida katta hovuz bor. Masjid tashqarisida yana bir hovli, yonida esa katta madrasa mavjud. Masjid boy kutubxonaga ega bo'lib, unda asosan diniy kitoblar saqlangan. Hovlidagi ba'zi ravoqlar va darvozalarga o'tgan shohlarning nomlari bitilgan. G'arbiy ayvonda ulkan qozon o'rnatilgan. Hovlining shim. tomonida G'iyosiddin Muhammad ibn Samning gumbaz b-n yopilgan daxmasi (ziyoratxona) joylashgan; ziyoratxona ganchkori naqshlar b-n bezatilgan.

Mo'g'ullar hujumi davrida masjidga qattiq zarar yetib, u Shohrux hukmronligi zamonida bir qadar ta'mirlangan. Nihoyat 1498–1500-yy. da N. rahbarligida Mirak Naqqosh masjidning ta'mirini oxiriga yetkazgan. U asrlar davomida nurab borib, 1940–1960-yy.da yangidan obod bo'lgan. Hozirda bino Afg'oniston hukumati himoyasida bo'lib, uning muhofazasi u-n har yili davlat tomonidan mablag' ajratiladi.

Ad.: *Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 11-ж. – Т., 2005. Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 2. – Душанбе, 1989.*

E.O.

HIROT MUDOFAASI (1500) – Hirotning shahzoda Badiuzzamon qo'shinlari hujumidan mudofaa qilinishi. Bu vaqtda Sulton Husayn Boyqaro poytaxtda emas edi. U Astrobodga, o'g'li Muhammad Husayn mirzo isyonini bostirishga ketgan bo'lib, bundan foydalangan Badiuzzamon Zunnun arg'un b-n birga Hirotga hujum qiladi. Hirotda ulug' amirlardan N. va Muhammad Valibek bor edi. Ular shaharni, shuningdek, shahar atrofidagi aholini himoya qilish chora-tadbirlarini ko'radilar, jumladan, shahar devorlarini mustahkamlab, bo'luklar (shahar atrofidagi tumanlar) aholisini shahar ichkarisiga olib kiradilar. Badiuzzamonning xazorayi nikudariylar va qipchoqlar ham qo'shilgan lashkarining bir qismi Zunnun arg'un boshchiligida Hirotga yaqinlashib kelganda, himoyachilar Zunnun bir o'zi kelyapti, shahzoda u b-n birga emas, deb o'ylab, unga qarshi jangga chiqadilar. To'qnashuv boshlangan vaqtda Badiuzzamon mirzo yetib keladi. Buni kutmagan mudofaachilar chekinadilar. Ularning bir qismi qochib ketadi, boshqa bir qismi shaharga kiradi. Shahar himoyachilari Hirotni qirq kungacha saqlab turadilar. Shu vaqtda Husayn Boyqaroning Astroboddan qaytib kelayotgani ma'lum bo'ladi. Agar bu ikki lashkar to'qnashsa va ota-o'g'il bir-biri b-n jang qilsa, ko'p qon to'kilishi, yana boshqa og'ir oqibatlar yuzaga kelishi mumkin edi. Bundan tashvishlangan N. Badiuzzamonga elchilar yuboradi va otasi yetib kelmasdan oldin o'z qo'shinini Hirot atrofidan olib ketishini iltimos qiladi. Yuzaga kelgan vaziyatda bu eng to'g'ri yo'l edi. Buni tushungan shahzoda N.ning maslahatiga amal qilib, lashkari b-n qaytib ketadi.

Ad.: *Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985; Хондамир. Буюклик хислати. – Т., 2011; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 2002.*

Q.E.

HIRS (ar.) – mayl, istak, ochko'zlik, tama, biror narsaga erishishga bo'lgan shiddatli harakat va intilish. Insonning cheksiz mol-dunyo orttirish, amal va shuhrat egasi bo'lish ilinjida tama va ochko'zlik b-n urinishi.

N. asarlarida H. haqida ko'p o'rinlarda to'xtalib, deydi:

Hirs-u havas xil'atini chok etib,
Tanni rizo chashmasida pok etib.

Shoir nazdida, H. inson oyog‘iga band uruvchi, uni dunyo tashvishlariga bog‘lovchi va asl maqsaddan chalg‘ituvchidir. Kimki dunyoga hirs qo‘ymas ekan, jahonning ranj-u mashaqqatlaridan ham qutulishi oson kechadi.

Jahondin necha el haroson erur,
Aning ranjidin maxlas oson erur.

Zuhd va qanoat H.ning ziddi o‘laroq qo‘llanilgan. Bu haqida N. “A.” asarida shunday deydi:

Hirsdin kechgil ul g‘amedurkim,
Haddu g‘oyat emas anga paydo.
Tut qanoatki, ul erur mole
Ki, nihoyat emas anga paydo.

N.ning “T.M.A.” asarida ayrim hukmdorlarning hirs, ochko‘zligi sabab davlat tanazzulga yuz tutishi haqqoniy yoritilganki, bu sosoniy hukmdor Xusrav Parviz binni Xurmuz misolida yorqin ifodalangan. “M.Q.”da, xususan, “Nomunosib noiblar zikrida”, “Shahna va zindoniylar va asaslar zikrida” amal hirsi haqida yozsa, “Mubrim gadolar zikrida” ularni g‘azab b-n “Tilanchi va gado ko‘pragi beg‘ayrat va behayo” deya tanqid qiladi. Ulardagi ko‘z hirsi, ko‘z ta’masi xususida nafrat b-n “Ko‘zlari hirsning “sod”i va tama’ning “ayn”i va bu hirs va tama’din jon-u ko‘ngullarida mahrumluq shayni” deb bitadi. “Qanoat zikrida” N. faslni asosan tazod she’riy san’atiga qurilgan ruboiy b-n xulosalagani maqsadga muvofiq bo‘lgan. Chunonchi:

Har kimki, qanoat tarafi nisbati bor,
Borcha el aro tavozeu izzati bor,
Ulkim tama’u hirs bila ulfati bor,
Yaxshi-yamon ichra zillat-u nakbati bor.

“M.Q.”ning “Safar manofi’ zikrida” yozgan tanbeh (120)ida “Ochlig‘ hikmat sarmoyasidur va to‘qlug‘ g‘aflat piroyasidur. To‘qlug‘ hirsin ko‘nguldin yo‘q qil, o‘zung och bo‘lib, bir ochni to‘q qil” deb nasihat qiladi. N. bu hikmati b-n ma’lum ma’noda Muhammad (s.a.v.)ning “Kimki hirs, ochko‘zlik bilan ovqatlansa, Alloh taolo uning qalb ko‘zini yopib qo‘yadi” degan hadisiga ham ishora qilganini anglash mumkin. Bu hadis ulug‘ mutafakkirning “N.M.”da asarida keltirilgan.

N. “V.” asarida Sulton Husayn Boyqaroga sadoqat, ixlos b-n qilgan xizmati xususida bayonotlar ham yozgan. Shulardan biri “bu – qasos uyida Tangri uchun, o‘zining muborak xotiri uchun, musulmonlar maslahati u-n “insof dor ul-qasosida hirs qaroqchisi bo‘ynin qanoat qilichi bila urub” turgani xususidadir. N. hirsni qaroqchiga, qanoatni esa qilichga o‘xshatgan. H. insonni ranj-u baloga duchor qilib, uni tama va yaltoqlikka undovchi illatdir. Inson tabiati bunga moyil ekan, undagi vijdon, e’tiqod, ruh yuksakligi, g‘urur va samimiyatiga putur yetadi. H. uni shaxsiyat qulligi, yaltoqlik, razillik va riyo sari yetaklaydi. Toki hirs-u havas xirmoni barbod bo‘lmas ekan, bundan el aziyat chekadi, yurt rivoji, osoyishtaligiga to‘siq bo‘ladi:

To hirs-u havas xirmani barbod o‘lmas,
To nafs-u havo qasri baraftod o‘lmas.

To zulm-u sitam jonig‘a bedod o‘lmas,
El shod o‘lmas, mamlakat obod o‘lmas.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Вақфия. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Арбаъин. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Абу Ҳомид Ғаззолий. Мукошафат ул-қулуб. – Т., 2002.*

E.Q.

HISOB – tekshirmoq, hisob olmoq; ibrat olmoq; N. asarlarida maishiy-hayotiy mazmun, ya’ni kundalik turmushdagi hisob-kitob ishlari hamda maxsus fan – matematika ilmi nazarda tutilgan. Jumladan, quyida chumolilar shikoriga chiqqan shoh Iskandarning qarshisida hisobi benihoya chumoli xayli chiqqanini anglash mumkin:

Ki, bordur hisob ichra haddin fuzun,
Dilovar el anda adaddin fuzun.

"F.Sh." dostonidan olingan quyidagi baytda esa Chin xoqonining qo‘shinlari adadi behisobligidan so‘z yuritilib, H. so‘zi bir vaqtning o‘zida radif vazifasini ham bajargan:

Sipohi yer yuzida qum hisobi,
Ne qum, gardun uza anjum hisobi.

Yana shu asarda Shiringa hamrohlik qilgan o‘n nafar qizlardan Parivashning hisob ilmi – matematikadagi zehni, qobiliyati yuqori ekani ta’riflanadi:

Hisob ichra birining zihni borib
Muammoda birisi ot chiqorib.

Qadimda devonxonalarda maxsus daftardorlar, hisobchilar ham bo‘lishgan. Ular podsho va xalq ehtiyoji b-n bog‘liq zarur narsalarni qayd etib borganlar va hisobini qilib turganlar. Ehtisob (ihtisob) ahli deganda maxsus ayrim narsalarni hisobga oluvchilar, tahqiqlovchilar, tekshiruvchilar nazarda tutilgan. N. "V." asarida madrasa egalarining ba’zi jihatlarni tekshirib turishi va hisob-kitob qilishini tayinlaydi: "... bu madrasa va xonaqohning mudarrisidin yo talaba va mutavalli va shayx huffoz va soyir amalasidin nomashru’ amre sodir bo‘lsa, ikki qatlag‘acha shar’an har muoxazag‘a mustavjib bo‘lsalar, anga ko‘ra ta’zir va ihtisob qilsunlar. Uch qatla vujud tutqondin so‘ngra ixroj qilsunlar, dag‘i o‘rnig‘a yana kishi nasb qilsunlar".

Ko‘rib o‘tilganidek, N. H. so‘ziga poetik ma’no yuklab, asarlarida ko‘zda tutilgan g‘oya va mazmunga mohirlik b-n xizmat ettirgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Навоий асарлари луғати. Тузувчилар: П.Шамсиев, С.Иброҳимова. – Т., 1972.*

S.R.

HISOR – qo‘rg‘on, qal’a, istehkom. Badiiy adabiyotda, xususan, N. ijodida aksariyat ma’naviy, botiniy hisordan bahs yuritiladi:

Qani soqiyi gul’uzorim mening?
Ki jon qasdi etmish xumorim mening.
Firoq ichra ko‘p mehnat-u dard-u ranj,
Chekibtur tani xoksorim mening.
Bu xayli balo daf’ig‘a avlo ul,
Ki mayxona bo‘lg‘ay hisorim mening.

Haq yo‘lchiligida fayz-u futuh, ma’rifat ulashiladigan maskan mayxona ekan, oshiq qalblar dard-u firoq balolaridan o‘zini himoyalashda mayxona H.i – qo‘rg‘onini tanlashi tabiiy. Yoxud nafs malomat toshlaridan H. istaydi:

Ko‘ngul birla so‘ngak manqal aro o‘t-u
o‘tundektur,
Malomat toshlarin to charx
tegramdin hisor etmish.

H. – osmon ma’nosida ham ishlatilib, ko‘k hisori, falak hisori kabi birikmalar ham qo‘llaniladi:

Havodis daf’ig‘a shah ko‘k hisori uzra gar chiqsun,
Ki faqr ahli uchun dayri fano dor ul-amoni bas.

Nafs tazkiyasida inson ko‘nglini turli qo‘rg‘on-u qal’alar b-n asraydi. Shulardan biri Qanoat hisoridir. N. bu xususda "M.Q."da yozadi: "Ulkim qanoatqa mu’tod bo‘ldi – shoh va gado taraddudidin ozod bo‘ldi. Maosh uyi garchi bo‘lur tor, ammo har necha mubolag‘a qilsang yeri bor. Hisoredurkim, anda kirsang, nafs sharridin qutulursen va ko‘hsoredurkim, anda chiqsang, dushman va do‘stdin mustag‘niy bo‘lursen aftodalig‘edurki, natija sarafrozliq va niyozmandlig‘edur..."

N. asarlarida H. insonni muhofaza etuvchi moddiy va ma’naviy qo‘rg‘on, shuningdek, osmon ma’nolarini ham bildiradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011;*

Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.

Z.R.

HISOR YURISHLARI – birinchi Hisor yurishi. Husayn Boyqaroning 1490-y.da Hisorga qilgan yurishi. Ma'lumki, o'sha yili N.ning ukasi Darvesh Alibek Balxda isyon ko'targan edi. U bunday ishga jazm qilar ekan, Hisor hukmdori Sulton Mahmud mirzoning qo'llab-quvvatlashiga umid qilgan va elchilar yuborgan. Sulton Mahmud ham unga xayrixohlik ko'rsatgan. Bu haqda "Ravzat us-safo"da shunday ma'lumot beriladi: "Shundan keyin Sulton Mahmud mirzo Darvesh Alibek orasida elchilik va bordi-keldi aloqalari sodir bo'ldi. Ibrohim Husayn mirzo oliy taxt poyasiga yetib borgach, amir Darvesh Alibekning bahona va makri Xoqoni mansurning xayoliga keldi, chunki bundan avval u bilan Sulton Mahmud o'rtasidagi muvofiqlik aloqalari mustahkamlanib qolgan edi". Sulton Mahmud mirzoning mazkur harakati Husayn Boyqaroning Darvesh Alibek isyonini bartaraf qilgandan so'ng Hisor va Qunduzga yurish qilishiga sabab bo'lgan. N. Sulton Husaynning bu qarorini ma'qullamagan va uni bu yurishdan qaytarishga uringan. Bu haqda N. "Xam.M." asarida ma'lumot beradi. Lekin Sulton Husayn o'z fikrini o'zgartirmagan va qishni Balxda o'tkazib, erta bahorda Sulton Mahmud mirzoning viloyatiga bostirib kirgan. N.ni u Balxda qoldirgan. Xuroson lashkari avval Hisorni, so'ngra Qunduzni qamal qilgan. Qamaldagilar qattiq qarshilik ko'rsatganliklari sababli Sulton Husayn qo'shini Hisorni ham, Qunduzni ham zabt eta olmagan va orqaga qaytishga majbur bo'lgan. Shu tariqa birinchi Hisor yurishi natijasiz yakun topgan.

Ikkinchi Hisor yurishi. Husayn Boyqaroning 1495-y.da Hisorga qilgan yurishi. Sulton Mahmud mirzoning o'limi (1495-y.) Sulton Husayn mirzoda Hisor va Qunduz viloyatlarini qo'lga kiritishga qaytadan umid uyg'otgan. U qo'shin to'plab, Amudaryo bo'yiga keladi va qish faslining katta qismini o'sha yerda o'tkazib, qish oxirida daryodan o'tadi. Lashkarning asosiy qismiga o'zi boshchilik qilib Hisorga keladi va qamal qiladi. Qo'shinning bir qismini Badiuzzamon mirzo boshchiligida Xisravshohga qarshi Qunduz tomonga yuboradi. Muzaffar mirzoni esa Xatlonni egallash u-n jo'natadi. Hisor qamali ikki-ikki yarim oy davom etadi. Garchi Hisor hukmdori Sulton Mas'ud mirzo o'z viloyatini himoya qilishda ishtirok etmay, Samarqandga jo'nab ketgan bo'lsa-da, bu yerda qolgan Mahmud barlos, Sulton Ahmad qarovul, Boqi Chag'oniyoniy kabi beklar mudofaani yaxshi tashkil etganlar. Xuroson qo'shini Hisorni zabt etolmagan. Badiuzzamon boshchiligida Xisravshohga qarshi jo'natilgan qo'shin ham muvaffaqiyatga erisha olmaydi. Buning ustiga ko'klam faslida Hisorda bo'ladigan kuchli yog'inlar harbiy harakatlarni qiyinlashtirib, Husayn Boyqaro qo'shinini mushkul ahvolga solib qo'ygan. Shu sababli sulh tuzib, marhum Sulton Mahmud mirzoning Bekabegim degan qizini Sulton Husayn mirzoning Haydar mirzo degan o'g'liga olib berishga qaror qiladilar. Hisordan Qunduzga kelgan Xuroson lashkari bu yerda ham biron-bir natijaga erisha olmaydi va shu tarzda ikkinchi Hisor yurishi ham muvaffaqiyatsiz yakun topadi.

N. bu yurishda avval ishtirok etgan va Sulton Husayn b-n birga bo'lgan. So'ngra podshoh uni ba'zi muhim ishlar yuzasidan Xurosonga qaytarib yuborgan. N. qaytib kelgandan so'ng ham Hisorda olib borilayotgan harbiy harakatlarni kuzatib borgan. Uning mazkur yurish munosabati b-n Badiuzzamon mirzoga yozgan maktubi ham bor va u N. "M."iga kiritilgan. Maktub N.ning yurish tafsilotlaridan to'la xabardor ekanligini ko'rsatadi. Jumladan, unda xandaq voqeasiga ham ishorat bor. Bu voqeaning tafsili bunday: yuqorida aytilganidek, Husayn Boyqaro Badiuzzamon mirzoni qo'shinning bir qismi b-n Xusravshohga qarshi yuborgan edi. U Qunduzga yaqinlashganda Xusravshoh butun lashkari b-n uning ustiga bostirib kelgan. Badiuzzamon xandaq qazdirgan va qo'shini son jihatdan Xusravshohnikidan ko'p bo'lsa ham, ehtiyotkorlikni ma'qul ko'rib, xandaqdan chiqmagan va ochiq jangga kirishmagan. Xatda N. Hisor yurishidan ko'zlangan maqsad

amalga oshmayotgani munosabati b-n Badiuzzamonga tasalli beradi va har bir ish o‘z fursatida, taqdir belgilagan vaqtda yuz berishini ta’kidlaydi: “Nedinkim to taqdir chamanidin inoyat nasimi esib, mehnat xazonin ishrat bahorig‘a mubaddal qilmog‘uncha maqsud guli ochilmog‘ining imkoni yo‘qdur. Mundoq bo‘lg‘ondin so‘ng ta’jil sud qilmas va malolatdin g‘ayri malomat ish ochilmas”.

Hisor yurishiga ishorat N.ning rasmiy devonlariga kirmagan bir g‘azali matla’sida ham mavjud:

To shahimg‘a masnadi davlat Hisor avrangidur,
Ham menga vahm-u fig‘onimg‘a Hisor ohangidur.

Ad.: *Алишер Навоий. Муншаот. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Хондамир Ҳабиб ус-сияр; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985.*

Q.E.

HOJI ABULHASAN (XV asr**)** – shoir. N. ning “M.N.” tazkirasida ma’lumot berishicha, kelib chiqishi turkiy qavmga mansub bo‘lib, ilm tahsiliga mashg‘ul bo‘ladi va muayyan darajaga erishadi. Ta’bi nazmi ham bo‘lib, turkiy va forsiyda qalam tebratgan. Turkiy g‘azallaridan birining matla’si quyidagicha:

Kulubtur ul gul-u bir hafta
turub boradur,
Bu kun o‘t ko‘ngulga tushub,
jonni kuydurub boradur.

N. uning muammo fanidagi iqtidorini ham ta’riflab, “Boyazid” ismiga yozilgan go‘zal muammosini keltiradi:

Har ki binad, sarvi man, boloi zeboi turo,
Bar kanori dida ravshan kunad joi turo.

Tarj.: Ey mening sarv bo‘yli go‘zalim, kimki sening baland qomatingni ko‘rsa, ko‘zining bir chekkasida o‘zi u-n joy ravshan qiladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

E.O.

HOVUZLAR – N. tomonidan Hirot va uning atrofida o‘n to‘qqizta: *“Havzi mahallayi Poyidaraxti merosiy, Ixtiyoriddin qal’asi oldidagi hovuz, Havzi Mahallayi sholbofon, Havzi Sari pushta, Havzi mahallayi Chexilgazi, Havzi xojayi Kalla, Havzi Pir Qivom, Havzi mahallayi Qalandaron, Shifoiya ënidagi havz, Maxdumi (Jomiy) sar mozoridagi havz, Pariyondagi havz, Kushanj (Fushanj) masjididagi havz, chorraha havzi, Sahroyi bog‘andadagi havz, Shohoni garmobdagi havz, Zuroboddagi havz, Ziyoratgohdagi havz, Andhuddagi havz, Xorazm yo‘li ustidagi havz”*lar qurilgan. Mazkur H.ning ayrimlari marmardan ishlangan. N. tomonidan bunyod qilingan H.dan “Havzi Mohiyon” (“Baliqlar hovuzi”) Xuroson ahli u-n sayrgoh va darveshlarga istiqomat qiladigan makon vazifasini ham o‘tagan. Xususan, “Havzi mohiyon” majmuasining qurilish, ziynatlash va bezak ishlari bitgach, N. bir darveshga o‘sha yerda yashab, hovuzga qarab, bohabar bo‘lib turishni topshiradi. Unga oylik maosh ham belgilaydi. Mazkur voqeani Xondamir qiziqarli tarzda shunday ifodalaydi: *“...ul Hazratning mulozimlaridan biri: “Havzi mohiyon” majmuasi qorovulining maoshini bir yilda bir martadan to‘lab turaylikmi yoki bir oyda bir martadan? – deb so‘rab qoldi. Yuqori mansabli Amir: Unga “mohiyona” (oylik ish haqi) belgilayman”.*

Ad.: *Ғиёсиддин Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Т., 2018.*

E.Q.

HOJI MUHAMMAD (XV asr) – mashhadlik shoir. N. “M.N.”da H.M. haqida yozadi: *“... Ko‘prak avqot bu faqir bila musohibdur va farzand o‘rnig‘adur, balki andin ham azizroq”.*

H.M. alohida axloq-odobda farishtadek, iste’dod va zehnda ham o‘tkir bo‘lgan. “M.N.”da uning bir forsiy matla’si va bir muammosi kelti-

riladi. Ilmiy adabiyotda “M.” tarkibidagi N.ning asrab olgan, uning ishonch va umidlarini oqlamagan farzandini shu H.M. deyilgan fikrlar uchraydi. Lekin N.ning yuqorida keltirilgan ko‘proq vaqt men b-n suhbatdosh bo‘lar edi, degan fikri va “M.”dagi maktubda musiqa sohasidagi mahorati xususidagi qaydlarga ko‘ra H.M. shoir tarbiyatidan va e’tiboridan bahramand bo‘lgan, lekin asrandi o‘g‘li emas, deyish mumkin. Chunki N. ijodkorlarning musiqa b-n aloqador biror bir fazilatini o‘z diqqatidan chetda qoldirmagan, albatta, qayd qilib o‘tgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Муншаот. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

S.G‘.

HOJI NUJUMIY – shoir, XV asr Hirot adabiy muhiti vakillaridan. Fors tilida ijod qilgan. “M.N.”ning ikkinchi majlisida H.N. haqida bir necha satrdan iborat qisqagina ma’lumot berilgan. Uning qayerlik ekani, nima ish b-n shug‘ullangani, qaysi ijtimoiy tabaqaga mansubligi haqida hech narsa deyilmagan. Ijodida hazil-mutoyibaga moyillik xususiyati yetakchilik qilgan. Qit’alar yozgan va ularning mazmuni ham, asosan, hazilomiz bo‘lgan. N. uni “Louboli (beg‘am, beparvo, shartaki, qo‘rqmas) kishi erdi”, – deb ta’riflaydi.

H.N. g‘azallar ham yozgan. N. tazkirada uning bir matla’sini keltirgan:

Boz iyd omad, biyo jonoki,
qurbonat shavam,
Hamchu chashmi go‘sfandi
kushta hayronat shavam.

Tarj.: Yana hayit keldi, kel jonon, qurboning bo‘lay, so‘yilgan qo‘yning ko‘zidek hayroning bo‘lay.

Bayt mazmunida ma’lum darajada hayotiylik mavjudligini ko‘ramiz. Qurbon hayiti vaqtida, qurbonlikka, ko‘pincha, qo‘y so‘yiladi. Birinchi misradagi “iyd omad”, “qurbonat shavam”, ikkinchi misradagi “chashmi go‘sfandi kushta” singari iboralarda shunga ishorat bor. Ayni paytda ular oshiqning holatini hayotiy hodisalar vositasida taasvirlashga xizmat qiladi. Bayt muallifning shoirlik mahorati va iste’dodini yaqqol namoyon eta oladi. Buni N. ham e’tirof etgan va uning she’rni keltirishdan avval yozgan “Ammo bu matla’i yaxshi voqe’ bo‘lubturkim...” degan so‘zlari shundan dalolat beradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

Q.E.

HOJIB (ar. − parda, parda tutuvchi) − so‘z takroriga asoslangan lafziy san’at. H. radifga o‘xshaydi. Lekin radif qofiyadan keyin takrorlanib kelsa, H. qofiyadan oldin keladi va go‘yo uni pardalab turgandek bo‘ladi. H. bir, ikki, hatto uch so‘zdan iborat bo‘lishi mumkin.

H. ham radif kabi ohangdorlikni kuchaytiradi, muallif aytmoqchi bo‘lgan fikrni ta’kidlashga xizmat qiladi.

H., asosan, g‘azal va qasidaning matla’sida, ko‘proq masnaviy baytlarida qo‘llanadi. M-n: N. “X.” dostonlarida ko‘plab H. namunalari uchraydi:

Kalomin ul guhardek ayla rangin,
Hadisin ul shakardek ayla shirin.

“F.Sh.” dostonidan olingan bu baytda bir so‘z – “ayla” H. bo‘lib kelgan.

“H.A.”dagi mana bu baytda esa ikki so‘z H. bo‘lib keladi (ruh aning):

Jon o‘lub ul, ruh aning qolibi,
Kim tanida ruh aning tolibi.

“L.M.” dostonidan keltirilgan quyidagi misolda esa uch so‘zli hojibni (bog‘ida gullar o‘ldi) ko‘ramiz:

Ko‘k bog‘ida gullar o‘ldi nobud,
Yer bog‘ida gullar o‘ldi mavjud.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Л., 1972; Куронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2010.*

E.O.

HOZIQ – taxallusi; asl ism-sharifi Junaydullo Islomshayx o‘g‘li (XVII asr oxiri, Hirot – 1843, Sharisabz) – zullisonayn shoir, tarjimon va olim. XIX asr o‘zbek adabiyoti namoyandalaridan biri. 1793–1800-yy.da Buxoroga kelgan va madrasada tahsil ko‘rgan, tib ilmini o‘rgangan, she’rlar mashq qilgan. H. taxallusini ham shu yerda olgan.

H. “Yusuf va Zulayxo” doston, “Voqeoti islomiy” va tarixiy-biografik xarakterdagi “Avlodlar shajarasi” risolalar, Mahmud Chag‘miniy (XI asr) ning tibbiyotga oid arab tilida yozgan “Qonuncha” asariga fors tilida “Tahqiq ul-qavoid” (“Tabobat asarlarini o‘rganish”, 1822) nomli sharh yozgan. O‘zbek va fors tillarida barakali ijod qilgan H.ning g‘azal, mustazod va muxammaslari mavzusi rang-barang, unda zamon norasoliklari, johil va odil hukmdorlar haqida mulohazalar bildirilgan, sevgi va muhabbat tarannum etilgan.

H.ning o‘zbekcha muxammaslari ko‘proq N. g‘azallari asosida yaratilgan bo‘lsa, uning tojikcha muxammaslari Hofiz, Bedil, Zebuniso g‘azallari ta’sirida yozilgan. Xususan, N.ning “*Jilvamu qildi sarig‘ bo‘rkin kiyib ul sarvinoz”, “Jonga chun derman na erkin kuymog‘ing kayfiyati?”, “Ikki gul bir kecha kulbamni guliston aylabon”, “Sarv-u ra’no qaddidin ra’no qading cholok emish”* misralari b-n boshlanuvchi g‘azallariga mahorat b-n taxmislar bitgan.

Jilvamu qildi sarig‘ bo‘rkin kiyib ul sarvinoz,
Yoki chekdi shu’la axzar jism ila sham’i tiroz.

matla’li N. g‘azaliga H. juda go‘zal muxammas bog‘lagan:

Menki qonim xanjari nozingga
bo‘lmishdir sabil,
O‘lg‘anim ul dam tururkim
qilmasa tig‘ing qatil,
Garchi ko‘zung qoshig‘a til
gar desa ham qol-u qil,
Rozi ishqing derga paykoning
erur ko‘nglumga til,
Lol til birla qilur ermish
takallum ahli roz.

Taxmis yozish san’atkordan katta mahorat talab qiladi. Hamma taxmislar ham muvaffaqiyatli chiqavermaydi. H.ning “*Jonga chun derman na erkin kuymog‘ing kayfiyati?”*, – deb boshlanuvchi N. g‘azaliga bog‘lagan taxmisiga diqqat qilsak, uning noziktab’ shoir sifatida N.dek beqiyos shoir misralariga hamohang satrlar bitgani, mazmunda, badiiy ifoda va fikrlar rivojida mushtaraklikni saqlab qolishga muvaffaq bo‘lgani sezilib turadi:

Hoziq, oxir ko‘z bu so‘zni chin dedi, o‘lguncha kuy,
Bir-birig‘a har biri sen-sen dedi, o‘lguncha kuy,
O‘rtadin ishq ofati men-men dedi, o‘lguncha kuy,
Ey Navoiy, barcha o‘z uzrin dedi, o‘lguncha kuy,
Kim sanga ishq o‘ti o‘q ermish azalning qismati.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Ўзбек адабиёти тарихи. 5 жилдлик. 4-жилд. – Т., 1978; Мирзоев А. Адабиёт (барои дарси адабиёти асрҳои XVI ва XIX тожик). – Душанбе: 1948; Шодиев Э. Ҳозиқ куллиёти // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1971. №2.*

S.R.

“HOLOTI PAHLAVON MUHAMMAD” – N.ning qirq yillik qadrdoni Pahlavon Muhammad xotirasini abadiylashtirish u-n yozgan memuar-biografik asari (1493). Tarixiy va adabiy manbalarning ma’lumot berishicha, Pahlavon Muhammad o‘z davrining fozil, madaniyatli, go‘zal insoniy fazilatlarni o‘zida mujassam etgan kishisi bo‘lgan. Nafaqat, ilm-u adab ahli, balki shoh-u amaldorlar

ham uning qomusiy bilimi va tengsiz fazilatlariga tan berganlar. *“Barcha sodot-u mashoyix va ulamo-yu fuqaroning mahbub ul-qulubi erdi va podshoh eshigida arkoni davlatdin oliyshon beklar va oliymakon ichkilar va sudur va soyir xaloyiqg‘a Pahlavonning suhbati Navro‘z va bayramcha bor erdi, hattoki sultonzodalar tilamas erdilarkim, bir lahza onsiz bo‘lmag‘aylar erdikim, podshohzodalardin nechakim muta’mad otlanib, Pahlavonning takyasig‘a borib, suhbatlig‘e qilg‘aylar erdi. Ul dag‘i borchasig‘a loyiq xizmatlar qilib, suhbatlar tuzib, ne’matlar tortib, sozandalig‘ va go‘yandalig‘ buyurub, samo’ va raqs qilib, alarni xushhol va munbasit uzotur erdi”.* Sulton Boyqaro ham undan ayri suhbat qilishni xushlamas, barcha majlis-u davrasida Pahlavon hozir bo‘lib, anjumanga fayz kiritar edi. *“Va Sulton us-salotinning nadimi majlis va anisi anjuman va xilvati va har rozda mahrami va har holda hamzabon-u hamdami erdi”.*

Asar Pahlavon ta’rifi b-n boshlanadi. Keyin uning nasabi xususida fikr yuritiladi. U yelkasi yerga tegmagan zabardast kurashchi bo‘libgina qolmay, she’riyat, falsafa, fiqh, ilmi nujum, tabobat, tajvid, aruz, qofiya, ilmi bade’ kabi fanning ko‘plab sohalarida yetuk bo‘lgan. Jumladan, u mohir bastakor bo‘lib, u yaratgan “Segoh”, “Chorgoh”, “Panjgoh” kabi kuylar o‘z davrida nihoyatda mashhur edi. Husayn Boyqaroga bag‘ishlab yozgan o‘z she’riga bastalagan “Saydi g‘izol”, Mavlono To‘tiy, Mavlono Kotibiy, Mavlono Xusraviy g‘azallariga bastalagan kuylari ham shuhrat tutgan. N. uning “Chorzarb”, “Savt”, “Naqsh” yo‘llaridagi qator kuylari Xuroson, Samarqand va Iroqda keng tarqalganligi haqida xabar beradi. Ayniqsa, muammo aytish va yechishda mahorat sohibi edi. Pahlavon Muhammad she’rni ham go‘zal o‘qigan va hofizasi g‘oyat quvvatli bo‘lgan. Go‘shtigir (Kurashchi) taxallusi b-n she’rlar ham yozgan. N. asarda uning muammo, ruboiy va qit’alaridan namunalar, g‘azal va masnaviylaridan parchalar keltiradiki, ular Pahlavonning chindan ham iste’dodli shoir bo‘lganligidan dalolat beradi. Uning she’rlariga Husayn Boyqaro ham yuqori baho bergan. *“Har nav’ ishg‘a xotir mutavajjih qilsa erdi – ul nav’ daxl qila olur erdikim, ul fan ahlining mohirlarig‘a mustahsan tushgay va bir nav’ qobiliyatni aning zotida xalq qilib erdikim, har nav’ xaloyiq bila ixtilot qilg‘och, alarning ko‘nglig‘a matbu’ va tab’ig‘a mahbub erdi va pisandida atvori bag‘oyat va hamida axloq-u shiori benihoyat”*, – deydi bu haqda N.

“H.P.M.” N. davri, siyosiy, ijtimoiy, madaniy, adabiy hayot, shoirning zamondoshlari, muhiti, davrasi, o‘z-o‘zidan, uning ijodi va faoliyatiga xayrixoh shaxs Pahlavon Muhammad va ularning o‘zaro munosabati haqida keng ma’lumot beradi. N.ning Pahlavon b-n do‘stligi, ular orasidagi samimiy munosabat asardan asosiy ip bo‘lib o‘tadi. Bo‘lajak shoir u b-n Mashhadda bir go‘shada xasta bo‘lib yotganida tanishadi. Tabobatdan xabardor bo‘lgan Pahlavon Muhammad bu yerda uni muolaja qiladi. Ular orasida boshlangan bu tanishlik qalin do‘stlikka aylanib, bir umr davom etadi. Bu ikki zot hamfikr, hammaslak do‘stlargina bo‘lib qolmay, o‘zaro hamdard va sirdosh ham edilar. “Ammo hech nav’ maxfiy sirri va rozi yo‘q erdikim, bu faqirdin yashurun bo‘lg‘ay. Andoqki, bu faqirning ham andin”, – deb yozadi bu haqda shoir. Muallif asarni qahramon vafotiga yozilgan ta’rix b-n yakunlaydi. “H.P.M.” sodda va tushunarli til, ravon va ommabop uslubda qiziqarli va ta’sirli qilib yozilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳолоти Паҳлавон Муҳаммад. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Ғаниева С. Навоий насри нафосати. – Т., 2000; Абдуқодиров А. Амир Алишер Навоий. – Хўжанд, 2013; Ўзбек адабиёти тарихи. II том. – Т., 1978.*

E.O., M.A.

“HOLOTI SAYYID HASAN ARDASHER” – N.ning ustozi, do‘sti, sirdoshi, maslahatdoshi, ota maqomidagi inson bo‘lmish Sayyid Hasan Ardasher nomini abadiylashtirish maqsadida yozgan asari (hijriy 896-milodiy 1490–91-y.) “Holot” so‘zining “holat”ning

ko‘pligi ekanligidan kelib chiqsak, risolada bu o‘ziga xos betakror insonning hol-ahvoli, maslagi, qarashlari yoritilganining guvohi bo‘lamiz.

N. Sayyid Hasan b-n 860-1455-96-yy.da birinchi marta uchrashadi. Bu voqea G‘iyosiddin Kichkina oilasining Iroqdan qaytishi va yosh N. ning Abulqosim Bobur xizmatiga kirishi paytlariga to‘g‘ri keladi. Sayyid Hasan ham shu saroy xizmatida edi.

Sayyid Hasan N.ga eng yaqin kishilar jumlasidan edi. Shoir ko‘plab asarlarida uning ustoz, do‘st, maslahatgo‘y, sirdosh, maslakdosh bo‘libgina qolmay, ular orasidagi munosabat ota-o‘g‘illik darajasiga yetganini alohida ta’kidlab ko‘rsatadi. M-n, “Soqiynoma”da o‘qiymiz:

Manga zohirda ato-vu ustod,
Lek ma’ni aro piri irshod.
Men aning bandalig‘ig‘a xursand,
Ul debon lek rafiq-u farzand.

Sayyid Hasan 1488-89-yy.da vafot etadi. Bu N.ning Astrobodda bo‘lib, qaytish paytga to‘g‘ri keladi. “Holot”ni esa oradan 2 yil o‘tib yozadi.

Risolada keltirilishicha, Sayyid Hasanning otasi Shohruxning o‘g‘li Boysung‘urning qushchisi bo‘lib, o‘z ishining ustasi va sodiq xizmati tufayli qushbegi darajasigacha ko‘tarilgan. Imkoniyatidan foydalanib, o‘g‘liga yaxshi ta’lim-tarbiya beradi. O‘z zamonasining barcha asosiy fanlarini egallagan Sayyid Hasan ham otasi kabi Boysung‘ur xizmatiga kiradi. N.ning yozishicha, arab tili sarf-u nahvi, adabiyoti, mantiq, kalom fiqh, hadis, tafsir, she’r ilmi, ta’rix, muammo, ilmi nujum va musiqa fanida bilimdon bo‘lishiga qaramay, azbaroyi kamtarligidan o‘zini hech narsani bilmaydiganday tutar edi. Uning bunday xoksorligi, oliyjanobligi hammani o‘ziga maftun etgan. “Bu hamida xisol va pisandida af’ol jihatidin yaxshi va yamon ahli zamon qoshida azizu mukarram va muhtaram bo‘lur ermishlar, – deb yozadi bu haqda N. – Va zamonning shuaro va fuzalo va zurafosidin alarning visoqi xoli ermas erdi, balki darveshlar va ahlulloh dag‘i doim alarning uyin musharraf qilib, suhbat tutar erdilar. Va shahrning sozanda va xonanda va go‘yandasi doim alar suhbatida hozir bo‘lurlar erdi”. U N.ga juda yoshligidan boshlab g‘amxo‘rlik qilar, ijodini g‘oyaviy jihatdan yo‘naltirib turgan, hamisha insoniy hamdardlik ko‘rsatib, mehribonchiligini darig‘ tutmas edi. N. bu haqda yozadi: *“...faqirni faqr tariqiga dalolat va irshod qilurlar erdi, nazm ayturg‘a targ‘ib ko‘rguzurlar erdi”.*

Asarda Sayyid Hasanning Hofiz she’riyatiga ixlos qo‘yganligi, N. ijodini puxta bilganligi alohida qayd etiladi. N. Sayyid Hasanni saroy xizmati, yuqori lavozimlar qiziqtirmaganligiga ham ayricha urg‘u beradi. Ma’lumki, Sayyid Hasan Navoiy b-n bir paytda, 1472-y.da devon amiri rutbasini olgan edi. U ikki yil davomida ushbu xizmatni ado etgan, so‘ngra Sulton Husayndan uni iste’foga chiqarishni so‘ragan. Shoh avval uning iste’fosini qabul qilmagan, lekin Sayyid Hasanning darveshlik yo‘liga ishtiyoqini, o‘zini butunlay shu yo‘lga bag‘ishlash xohishini kuchliligini anglagandan so‘ng rozi bo‘lgan. N. o‘z asarida o‘sha kunga, ya’ni Sayyid Hasan iste’foga chiqqan kunga, alohida to‘xtalgan. Uning yozishicha, Sulton Husayn Boyqarodan tortib, saroy ahllarigacha shu kuni yig‘laganlar, zero Sayyid Hasan qisqa muddat saroy xizmatida bo‘lgan davrda hammaning mehr-muhabbatini qozonib ulgurgan edi. Bu ma’lumot Sayyid Hasanning insoniy qiyofasini, uning shaxs sifatidagi kamolotini yana bir bor namoyish etadi.

N. o‘zining Sayyid Hasan b-n qachon va qanday tanishgani xususida yozadi: bu 1455-56-yy.da u 14–15 yoshda ekanida sodir bo‘lgan. U Abulqosim Bobur xizmatiga kirganida bo‘lajak shoh ham uning saroyida xizmatda edi. Bu do‘stlik bir umr davom etdi. O‘zaro munosabatlari xususida shunday yozadi: *“alarning iltifoti zotiysi bu faqir bila bor erdi va farzand der erdilarkim, o‘z havlim go‘shasida alar uchun bir muhtashar maskane alohida tartib qilib erdim, goheki, mufrit riyozatlardin tab’larig‘a kalole voqe’ bo‘lsa erdi, xotirlari tashxizi uchun ul maskang‘a kelib,*

bir kun-ikki kun turub, yana xonaqohg‘a o‘z xilvatlarig‘a borurlar erdi”.

Ardasher yosh shoir she’rlarini sevib o‘qir, yod olib, davralarda aytib yurar edi. Uni muttasil ravishda she’r yozishga va faqr yo‘lini tutishga da’vat qilib kelgan. Chunki faqr-u fano uning siyrati va hayotini belgilovchi bosh xususiyat edi. Bu haqda N. *“Bu faqir fuqaro ahli, darveshlar va ahlulloh mulozamatig‘a ko‘p yetibmen, faqir tariqida alardek oz ko‘rubmen”,* – deydi. Sayyid Hasanning qiziqish doirasi, u sevgan shoirlar va asarlar haqida ma’lumot beradi. Darveshtabiat va rindsifatligini keng tasvirlaydi. U suhbatiga yetgan mashhur tariqat pirlarini zikr etadi. Shoh-u amaldorlar uning suhbatini sevishlarini aytadi. Shamsiddin Muhammad Tabodgoniy murid tushib, uning rahnamoligida riyozat bosqichlarini bosib o‘tgani haqida hikoya qiladi. U b-n bog‘liq ibratli voqealarni keltiradi.

Nihoyat darajada kamtar, yumshoq ko‘ngilli Sayyid Hasan o‘ta sabr-toqatli inson bo‘lgan. N. buni Sayyid Hasanning 14 yoshli o‘g‘li vafot etganida, nechog‘lik sabot ko‘rsatgani timsolida bayon etadi.

N. asarda Sayyid Hasanning rindligini ochib berishga harakat qiladi. Sayyid Hasan faoliyatining ma’lum davrlarida zamonaga, muhitga, ulardagi nosozliklarga munosabati o‘zgara boradi. Ana shu botiniy his-tuyg‘ularini u rindlik kayfiyati ostida pinhon tutishga harakat qilganini ko‘rsatib beradi. N. ta’rificha, Sayyid Hasan voqelikni, undagi hodisalar mohiyatini yaxshi tushungan. Bir hayotiy detal orqali N. Sayyid Hasanning ana shu ajib xususiyatini ochib beradi. Ziyofatlardan birida hozir bo‘lgan fozillar narsalarning bir-biridan farqlari haqida fikr yuritadilar. Shunda kimdir quyidagi baytni o‘qiydi:

La’l sang astu degi sangin sang,
Lek andar miyon tafovut host.

Tarj.: La’l-toshdir, tosh qozon ham tosh, lekin ular orasida ham farq bor.

Shunda Sayyid Hasan zavq b-n o‘z fikrlarini aytadi: tosh qozon faqat foyda beradi, unda turli taomlar pishadi va barcha bahramand bo‘ladi, la’ldan esa xaloyiqqa har turli balolar keladi. Hikoya davomida N. ittifoqo xuddi shu vaqtda shoh Abusaid kimdaki javohir bo‘lsa, tortib olib, bo‘lmasa, barchani bezovta, hamma yerni ost-ust qilib, elga qattiq zulm o‘tkazganini qayd qiladi. Aytib o‘tish joizki, N. bir tosh b-n ikki nishonni mo‘ljalga olib, ham Sayyid Hasanning haqsevarligini, ham Abusaidning zulmkorligini ko‘rsatib o‘tadi.

Risola sodda til, ravon uslubda, hamma tushunadigan qilib yozilgan. Mo‘jazgina asarda Sayyid Hasanning hayoti, turmush tarzi, fe’l-atvori, odobi, hayosi, saxovati, muruvvati, faoliyati, aqidalari, qarashlari, qiziqish doirasi, xalqqa munosabati va xalqning unga munosabati b-n bog‘liq barcha asosiy chizgilar keltirilib, uning o‘z davrining yetuk insoni sifatidagi mukammal qiyofasi gavdalantirilgan. Bu ulug‘ insonning go‘zal insoniy fazilatlari haqida alohida mehr-u ixlos b-n yozadi.

Sayyid Hasan o‘z davrining fozil, ilg‘or fikrli, donishmand, go‘zal axloqli, fazilatlar sohibi, har jihatdan ibrat bo‘larli mashhur kishilardan bo‘lgan. N.ning ijodiy kamolotida uning sezilarli o‘rni bo‘lganligi shubhasiz. U 15 yoshidan umrining oxirigacha bu zot b-n yaqin munosabatda bo‘lgan. U aslida oddiy bir inson – kasbi sipohiylik bo‘lgan. Umrining oxirida esa darveshlik yo‘lini tutib, xilvatga chekingan. Lekin N.Komilov ta’biri b-n aytganda, N. u-n Sayyid Hasan – komil inson timsoli. “H.S.A.”da u ana shunday inson siymosini yaratgan. Chunki shoir o‘z idealidagi komil insonga xos xususiyatlarni uning siymosida ko‘rgan.

Risola N.ning ustozi vafotiga tushirgan ta’rixi b-n yakunlanadi. Sayyid Hasan bemor bo‘lib yotgani va vafot etganida N. shaharda bo‘lmay, Husayn Boyqaro topshirig‘i b-n Hirotdan uzoqqa ketgan edi. U qaytgach, do‘stining ta’ziyasini o‘tkazadi, shahar shimolidagi, tog‘ etagidagi bahavo joyda uning u-n maqbara barpo qiladi. Sayyid Hasan b-n hayot ekanliklarida hamsuhbat bo‘lgan bir necha mo‘tabar zotlarning na’shlarini shu yerga ko‘chiradi va obod qiladi. Shuning u-n ham bu yer “Azizlar hazirasi” nomi b-n mashhur bo‘ladi.

“Xam.M.”, “H.P.M.” asarlari singari Navoiyning bu asari ham o‘zbek nasrida o‘ziga xos yangi voqea bo‘ldi. Chunki, bunday asarlar N.ga qadar yaratilmagan edi, binobarin, “H.S.H.A.”, bir tomondan nasrning o‘ziga xos, yangicha namunasi sifatida, ikkinchi tomondan, o‘sha davrda komil inson haqidagi tasavvurlarni o‘zida mujassam etgan shaxs siymosi, yaratilgan asar sifatida o‘zgacha ahamiyatga molikdir. N. nasrining go‘zal namunasi bo‘lgan bu asar o‘quvchilarni oliyjanob insoniy fazilatlar va beqiyos do‘stlik ruhida tarbiyalashi jihatidan ham muhim ma’rifiy-ma’naviy ahamiyat kasb etadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳолоти Саид Ҳасан Ардашер. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Ғаниева С. Навоий насри нафосати. – Т., 2000; Комилов Н. Саййид Ҳасан Ардашер – комил инсонми? // Тавҳид асрори. – Т., 1999; Абдуқодиров А. Амир Алишер Навоий. – Хўжанд, 2013. Ўзбек адабиёти тарихи. II т. – Т., 1978.; С.Ғаниева. Очилмаган саҳифа // Шарқ юлдузи, 1967, 1-сон; Асадов М. Соқийнома: тарих ва поэтика. – Т., 2020.*

E.O., M.A., Z.R.

HOMIDIY Hakimjon (1905, Buxoro – 1985, Toshkent) – ziyoli oilasida dunyoga kelgan. O‘rta maktab xatmidan so‘ng H. dastlab shahardagi pedagogika bilim yurtida tahsil ko‘radi, so‘ngra O‘zbekiston pedagogika akademiyasi (Samarqand davlat universiteti)da tahsilni davom ettiradi, H.H. imzosi b-n o‘zbek va tojik tillarida she’rlar yoza boshlaydi. Akademiyani tugatgach, H.H. bir muddat Tojik o‘qituvchilar institutida, keyin esa Dushanbe pedagogika institutida “Adabiyot va uni o‘qitish metodikasi” fanlaridan talabalarga dars beradi.

O‘tgan asrning 30-yillari so‘nggida H.H. Toshkentga ko‘chib keladi va 1941-y.dan umrining oxirigacha Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti (hozirgi universitet)da o‘qituvchi, katta o‘qituvchi, dotsent vazifalarida ishlab, O‘zbek adabiyoti va uni o‘qitish metodikasi bo'yicha talabalarga dars bergan, yosh tadqiqotchilarga ilmiy rahbarlik qilgan. Mashhur pedagoglar A.Zunnunov, K.Ahmedov, K.Jo‘rayevlar H.H. rahbarligida pedagogika fanlari nomzodi bo‘lishgan. H.H. n.shunoslikka munosib ulush qo‘shgan. H.H. N. lirikasi, jumladan, g‘azallari haqida ko‘plab maqolalar yozdi. 1943-y.i mashhur sharqshunos Y.E.Bertels rahbarligida “Navoiyning forsiy tildagi she’riyati” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan, o‘rta maktablar u-n klassik adabiyot bo‘yicha xrestomatiyalar tuzishda ishtirok etdi. Tadqiqotda “D.F.”ning bir necha nusxalari ilmiy tavsif etilgan; bir turkum g‘azallar mavzu doirasi, g‘oyaviy yo‘nalishi hamda poetik jihatdan ilk marotaba tahlil qilinib, muayyan ilmiy xulosalar chiqarilgan.

1952-y.da H.H.ga dotsent unvoni berilgan. H.H. Ogahiy, Mujrim Obid, Fazliy, Uvaysiy, Nosir Xisrav, Nodira, Daqiqiy singari klassiklar ijodi haqida o‘nlab maqolalar bitgan. H.H. “Adabiyotshunoslik terminlari” (1972) qo‘llanmasining mualliflaridan biri. H.H. “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchi”, “Xalq maorifi a’lochisi”dir.

Ad.: *Ҳакимжон Ҳомидий. Навоийнинг форсий тилдаги шеърияти. номзодлик диссертацияси. 1943. Ҳомидий Ҳ. ва бошқ. Адабиётшунослик терминлари луғати. – Т., 1970.*

H.H.

HORUN (a.s.) – Qur’onda zikr qilingan payg‘ambarlardan biri Muso (a.s.)ning akasi. Allohning amri b-n Muso (a.s.) zolim Fir’avnni da’vat qilishga kirishadi. Muso (a.s.) tez va duduqlanib gapirgan. H. (a.s.) esa juda fasohatli va ta’sirli so‘zlash qobiliyatiga ega bo‘lgan. Shu bois Muso (a.s.) bu mas’uliyatli vazifani bajarishda akasi H. (a.s.)ning yordamchi bo‘lishini Allohdan so‘raganda, Alloh H. (a.s.)ni payg‘ambar va ukasiga yordamchi qilib tayinlaydi (Toho surasi 25-36-oyatlar).

Aka-uka Fir’avnni hidoyat yo‘liga da’vat etadilar. Og‘ir kunlarda bir-birlarini suyaydilar. N. talqinicha, Muso (a.s.)ning yolg‘iz o‘zi odamlar-

ni ibodatga chaqirishga ojizligini bildirgach, Alloh H. (a.s.)ga ham payg‘ambarlikni nasib etadi. Ular Fir’avnni hidoyat qilishga va bani Isroilni qutqarishga mas’ul bo‘ladilar. Muso (a.s.) Muqaddas Vodiydan xursand holda qaytib, manzilga keladi. Tong mahali Misr shahriga kelib, kechasi uyiga boradi, onasi va atrofidagilarni o‘z diniga kirgizib, H. (a.s.)ga payg‘ambarlik bashoratini berib, tongda Fir’avn qasriga yo‘l oladi.

Ammo o‘zini Xudo deb e’lon qilgan, Bani Isroilga ko‘p azoblar bergan Fir’avn Haq yo‘lini tan olmaydi, zalolatdan qaytmaydi. Natijada, Allohning g‘azabiga uchrab, suvga g‘arq bo‘lib, halok bo‘ladi. Muso (a.s.) sakson yoshga kirganida, Alloh taoloning hukmi b-n bir sandiq yasab, uni javohir b-n bezaydi, samoviy lavhlarni unga solib, atrofiga yetti xil rangli chodir va pardalar tikadi, uni asrashni H. (a.s.) va uning avlodiga topshiradi. Uni “Sanduq ush-shahoda”, – deb ataydilar, u Bayt ul-Muqaddasda mashhur bo‘ladi. N. “T.M.A.”da Muso (a.s.) va H. (a.s.) larning Faridun zamonida yashaganligi, shuningdek, Manuchehr zamonida ham Haq taolo Muso (a.s.) va H. (a.s.)larni asl ismi Valid binni Mus’ab bo‘lgan Fir’avnni hidoyat qilishga yuborganligini aytib o‘tadi.

N. “S.S.” dostonida birinchi iqlim yo‘lidan kelgan musofirning afsonasini keltirib, Farruxshoh va Axiylarni mehribonlikda, birodarlikda Muso (a.s.) va H. (a.s.)larga o‘xshatadi, boyliklarini esa Qorun xazinasiga qiyoslaydi:

Bo‘lub ikkisi Muso-yu Horun
Ganj ila lek ani qilib Qorun.

Ad.: *Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Ислом энциклопедияси. – Т., 2004; Носириддин Бурҳониддин Рабғузий. Қиссаси Рабғузий. 2 жилдлик. 2-жилд. – Т., 1991.*

S.R.

HOTAMI TOYI (laqabi; to‘liq ismi: Abu Safona Hotam ibn Abdulloh ibn Sa’d Toyi) (VI asr oxiri – VII asr boshi) – arab shoiri. Yamandagi Toy qabilasining boshlig‘i, mashhur lashkarboshi va shoir bo‘lgan. Adl-u insofi, saxiyligi va yaxshiligi b-n dastlab atrofdagi qabilalar, keyin butun Arabiston va Sharq xalqlari orasida H.T. − Toy (qabilasi)dan bo‘lgan Hotam nomi b-n shuhrat qozongan. Saxovat va himmati tufayli Muhammad (s.a.v.) H.T. sharofati b-n uning avlodini e’zozda tutishni buyurgan.

H.T. badiiy adabiyotda saxiylik timsoli, saxovat ramziga aylanib ketgan. Sharq xalqlari og‘zaki ijodi va yozma adabiyotida H.T. haqida ko‘plab afsona va rivoyatlar, qissa va dostonlar, hatto “Hotamnoma” kitobi yaratilgan. “Hotamnoma” dastlab arab tilida yaratilib, keyin forscha nusxasi Markaziy Osiyo xalqlari o‘rtasida keng tarqalgan. O‘rta asrlardayoq kitob holida tarqalgan bu asar XVIII–XIX asrlarda hind, urdu, o‘zbek, turkman, ingliz va qisman rus tillariga tarjima qilingan. Turkiyga XIX asrda Oqsuvda Muhammadhasan Olim forschadan tarjima qilgan. 1900-y.da Toshkentda O.A.Porsev litografiyasida “Hotamnomayi turkiy” nomi b-n chop etilgan. Mazkur qo‘lyozma va toshbosma asosida f.f. d-ri., prof. A.Matg‘oziyev 1988-y.da uni nashr ettirgan. Sharq xalqlari tillarida Hotam, Hotamtoy nomlari “saxiy”, “qo‘li ochiq” ma’nolarini ifodalaydigan sifatga aylanib ketgan. Adiblar H.T. siymosini karam va saxovat bobida ideal darajaga ko‘tarib, u orqali o‘z maqsadlarini ilgari surganlar.

H.T. shoir sifatida ham mashhur. Bizgacha nihoyatda oz miqdordagi she’rlari yetib kelgan. She’rlar devonini arab adibi va xattoti Rizqulloh Hassun Britaniya muzeyida saqlanayotgan nusxasi asosida 1872-y.da Londonda chop ettirgan. H.T. o‘z she’rlarida jangovar badaviylarning mardligi, saxovati va oliyjanobligini madh etgan.

N. “H.A.” dostonining karam vasfiga bag‘ishlangan beshinchi maqolatida “himmat va saxo ahliga peshvo” H.T. haqidagi mashhur rivoyatni keltiradi.

“V.” asarida Husayn Boyqaroni saxovat bobida H.T.dan ham ustun qo‘yadi:

Javod ilkining bahri andoq amiq –
Ki, yuz Hotami Toyi anda g‘ariq.

“M.N.”ning Husayn Boyqaro ijodiga bag‘ishlangan sakkizinchi majlisida uni ehson bazmining hotami (“baxshish bazmining Hotami”), deb vasf etadi.

N. lirikasida ham H.T.ning ismi talmeh san’atida zikr etilib, qo‘li ochiq, saxiy shaxs, katta mol-u dunyo sohibi sifatida talqin etiladi:

Chun ziyofat xoni yoysang janbida
tonmas sipehr,
Jashni lu’mat Hotamu Barmak bisoti ne’matin.

“G‘.S.” devonidan o‘rin olgan g‘azallarning birida esa cheksiz boylik va sha’n-u shavkat egalari qatorida tilga olinadi:

Qani Hotam, qani Qorun,
qani Jamshidu Afridun?!
Bas, ehson qil sanga gardundin
adno e’tibor o‘lg‘och.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Матғозиев А. Ҳотам ҳақида // Ҳотамнома. – Т., 1988; Очилов Э. Ҳотами Той // ЎзМЭ. 11-жилд. – Т., 2005; Ҳасанхожа Нисорий. Музаккири ул-аҳбоб (И.Бекжон тарж.). – Т., 1993(тарж. изоҳи); Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 3. – Душанбе, 2004.*

A.A., E.O., B.R.

“HOTAM TOYI HIKOYATIKIM...” – “X.”ning birinchi dostoni “H.A.”ning karam va saxovat vasfiga bag‘ishlangan beshinchi maqolatiga ilova qilingan bu mustaqil hikoyatning to‘la nomi “Hotami Toyi hikoyatikim, himmat va saho ahlig‘a peshva erdi va aning mehmonlig‘i ta’zimig‘a bosh indurmagan gado himmatini ko‘rub insof berdi” shaklida bitilgan. Bu ilova hikoyatga maqolatda olg‘a surilgan asosiy g‘oyalardan biri – insoniy g‘ururni doimo baland tutish, har qanday og‘ir sharoitda ham o‘z qadr-qimmatini saqlash va jumladan, tama’ qilmaslik g‘oyasini hayotiy lavhada namoyish etish vazifasi yuklatilgan. 19 baytdangina iborat bo‘lgan bu mo‘jaz hikoyatning syujeti murakkab emas. Unda o‘z saxiyligi b-n chor-atrofga dong taratgan katta boylik va mol-u mulk sohibi Hotam Toyning cho‘l-u dashtdan o‘tin terib, kunini o‘tkazuvchi bechora shaxs b-n uchrashuvi va o‘zaro qisqa suhbati haqida so‘z boradi.

Necha yuz tuya va hisobsiz qo‘y-qo‘zilarni so‘yib, o‘z odatiga ko‘ra, Hotam Toy butun xaloyiqqa navbatdagi to‘kin ziyofat berar ekan, dam olish niyatida g‘ala-g‘ovurdan uzoqlashib, biroz chetga chiqadi. Shunda u “azob-mashaqqatga asir bo‘lib, orqasiga bir quchoq o‘tin yuklagan, yuk og‘irligidan bukilgan gavdasini hassa yordamida zo‘rg‘a ko‘tarib, har qadamni og‘ir-og‘ir nafas bilan bosayotgan o‘tinchini” uchratadi. Uning ayanchli ahvoliga qattiq achinib va o‘zi berayotgan ziyofatdan bexabar bo‘lsa kerak, deb o‘ylab, taklif etganida o‘tinchi kulib, boxabar ekanligini, ammo u yerga bormasligini aytadi. Xuddi shu javobda tamagirlik va tekinxo‘rlik keskin qoralanadi, dostonning asosiy maqolatida targ‘ib etilgan g‘oya (“Tarki tama’ qilki, saxo ul emish!”) o‘zining butun mohiyati b-n namoyon bo‘ladi. Aytish kerakki, N. tasvirida Hotam Toy va o‘tinchi bir-biriga zid obrazlar emas. Hikoyatda Hotam Toy va uning faoliyati qoralanmaydi, balki, unga xos bo‘lgan oliyhimmat va ochiqqo‘llik, saxovat va mehr-shafqat ma’qullanadi. Bugina emas. Hotam Toy (Sharq adabiyotida muqimlashgan an’anaga to‘la muvofik holda) saxovat va himmatning, shafqat va oliyjanoblikning eng yorqin ramzi sifatida talqin etiladi. Uning bu tarzda tasvirlanishi ham amalda oddiy mehnatkash o‘tinchi ma’naviy dunyosining chuqurroq va ko‘lamliroq ochilishiga yordam qiladi. Gap shundaki, hikoyat yakunida shoir og‘ir mehnat b-n kun ko‘ruvchi o‘tinchi cholning cheksiz moddiy boyliklar sohibi bo‘lgan Hotam Toydan ruhan boyroq va oliyjanobroq ekanini Hotam Toyning xuddi o‘ziga iqror qildi-

radi. Tekin ziyofatga yetgan da’vatiga javoban o‘tinchidan:

Bir diram olmoq chekibon dast ranj
Yaxshiroq andinki, birov bersa ganj! –

so‘zlarini eshitgan Hotam Toy:

Ulki bu yanglig‘ so‘zi mavzun edi,
Mendin aning himmati afzun edi –

degan haqqoniy xulosaga keladi. Shaxs qadr-qimmatini moddiy boylik va o‘rinli-o‘rinsiz sarflash evaziga orttirilgan sha’n-u shavkat emas, balki chin insoniy fazilatlar belgilaydi, faqat halol mehnatgina kishini ma’naviy yuksaklikka ko‘tarib, ruhan mag‘rur va haqiqiy mustaqillikka yetkazadi – shunday chuqur mazmunni ixcham shaklda ifodalovchi bu hikoyat N.ning bu janrda ham yuksak badiiy mahoratiga yaxshi misol bo‘la oladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011.*

A.A., M.A.

HOTIF – chaqiruvchi, ovoz beruvchi, tovush chiqaruvchi, g‘oyibdan ovoz beruvchi. G‘aybdan ovozlarni eshitish – bu payg‘ambarlar o‘z vazifalarini endi boshlaganlarida duch kelgan holat bo‘lgan. Rivoyatlarga ko‘ra, Rasululloh (s.a.v.) Hiro g‘orida endigina vahiy qabul qila boshlaganlarida, Alloh tarafidan kelgan g‘aybiy xitoblarni eshitganlar. Avliyolar, Allohga qurbat qilgan shayxlar, solih kishilar hayotida H. b-n aloqador qator rivoyatlar etib kelgan. N. asarlarida H.ning *H.i g‘ayb, H.i sahar, H.i mayxona, ilhomi H., H.i xo‘jasta, H.i farxundanafas, barqi H.* singari birikmali ko‘rinishlari uchraydi. Quyidagi baytda N.ning “Nazm ahlining yo‘lboshchisi kim bo‘ladi?” degan savoliga H.dan – g‘aybdan sas keladiki: “Agar istasang, sen bo‘lasan”. Bu savol-javobdan ham H.ning g‘ayb olamiga ishora qiladigan lug‘aviy ma’nosi anglashiladi:

Dedim, nazm ahlining sarxayli
kim bo‘lg‘ay, dedi hotif,
Navoiy bo‘lgay, ulkim sen
tilaydursan agar bo‘lg‘ay.

N.ning “H.A.” dostonining “Avvalg‘i hayrat-”i 18-faslida bayon qilinishicha, ko‘ngil yo‘qlik olamidan borliqqa kelib, olam ichidagi ajoyibotlarga boqar, lekin hech nimani anglamas, tushunmas edi. G‘aroyibotlarining sirini bilgisi kelgan ko‘ngilga “Hotifi g‘aybiy” nido qiladi.

Ya’s ila o‘z ajzini qilg‘och ado,
Qildi anga hotifi g‘aybiy nido...

Bayt mazmunidan ma’lum bo‘lishicha, bu tovush egasi Allohning farishtalari edi. Ta’kidlash zarurki, H. timsoliga N. asarlarida sanoqli o‘rinlarda murojaat etilgan bo‘lsa-da, mavjud ifodalarda o‘sha asarning g‘oyaviy yo‘nalishini belgilash, tasavvufiy mohiyatni chuqurlashtirish, syujet dinamikasini oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynagani kuzatiladi. M-n, “F.Sh.” dostonining ilk boblarida asarni qanday boshlashni bilmay, tushunarsiz bir ahvolda qolgan N.ga g‘aybdan H. nido qiladi. Shoirni oltinlar b-n bezalgan bog‘-ning loyihasini tuzib, “H.A.”dek inju va marvarid konini kashf etganini, endi esa hech ikkilanmay navbatdagi san’at asarini yaratishga da’vat etadi. Shundan so‘ng N. zavq va ilhom b-n ishga kirishib ketadi.

Chu hotifdin yetishti bu navidim,
O‘zumdin o‘zga nav’ o‘ldi umidim.

Qo‘yub vasvosu savdolarni bir yon,
Etishtim pir dargohig‘a giryon...

Manga chun yetti du davlat nishoni,
Ochildi har yon abvobi maoni.

“X.”ning 4 ta dostonini yozib tamomlagan N. “S.I.” dostonini yozishni boshlash arafasida yana shunday tushkun holatga tushadi. Shunda unga H. saslanadi va shoirni cheksiz rag‘batlantiradi:

Ki: "Ey bulbuli zori alhonsaro,
Vale so'z riyozida dostonsaro...

Sanga oncha Haq lutfi voqe'durur
Ki, to turk alfozi shoe'durur...

Ko'nguldin tavahhumni aylab adam,
Ilik ishga ur, yo'lg'a qo'yg'il qadam!"

Ne amr etti ilhomi hotif bila,
Shuru' ayladim joni xoyif bila.

Hadislarda H. lafzi yashirin kelgan ovoz ma'nosida emas, "chaqirmoq, da'vat etmoq" mazmunini bildirishi e'tiborda tutilsa, N. tilga olgan bu personaj shunchaki to'qima bo'lmay, balki ilohiy hikmatning elchisi ekani ma'lum bo'ladi. Shuning u-n shoir ruboiylari jamlangan "N.J."da H.ning ovozi bashorat xarakteriga ega bo'lganiga diqqat qaratadi:

Iqbol ionat ibtido qildi manga,
Aflok guharlarin fido qildi manga,
Hotifki bashorati nido qildi manga,
Mazmunini bu nav' ado qildi manga –

Ma'lumki, N.ning "N.J." asari Hazrati Ali (r.a.)ning "Nasr ul-laoliy"siga javoban tarjima yo'sinida yozilgan. N. bu xayrli ishni qilishga ishora etgan Sulton Husayn Boyqaroni "hotifi farxundanafas" deb ta'riflaydi.

N. "H.A."ning 25-hayratida yozishicha, shohlik mansabidan voz kechib, darveshlik yo'lini tanlagan, 14 yil yo'l yura-yura Ka'bani tavof qilish u-n Makkaga yetib kelgan Ibrohim Adham Ka'bani o'z o'rnida ko'rmagach, "Yo Allohim, bu ne hol?", – deb so'raganida, H.dan ovoz kelib, buning sabablari aytiladi:

Chekti fig'onkim, bu nedur, yo Iloh,
Hotife un berdikim: "Ey piri roh..."

Shoir "N.M." tazkirasida ham Ibrohim Adhamning yigitlik davrida ov qilib yurarkan, H. nido qilib: "Ey Ibrohim, sani bu ish uchun yaratmaydurlar" deganini va shundan so'ng u g'aybiy da'vatga asosan tasavvuf yo'liga kirib ketganini rivoyat yo'li b-n bayon qilib o'tgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Назм ул-жавоҳир. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Muhammed b. İbrâhim el-Kelâbâzî, et-Taarruf: Doğuş Devrinde Tasavvuf (trc. Süleyman Uludağ), İstanbul 1979; Ca'fer Seccâdî, Ferheng-i Luġāt u Iṣṭılâḥât u Taʿbîrât-i ʿİrfânî, Tahran 1350 hş.*

S.R.

HOTIFIY (1454–1521, Jom) – fors-tojik shoiri. Abdurahmon Jomiyning jiyani bo'lib, boshlang'ich ma'lumotni o'zi tug'ilib o'sgan Afg'onistonning Jom viloyati Xarjard shaharchasida olgan. Keyin Hirotga kelib, Jomiy va N. yordamida tahsilini kamolga yetkazgan. Yoshligida iste'dodiga nihoyatda mahliyo bo'lib, o'zicha, hatto Firdavsiy, Nizomiy, Xusrav Dehlaviy asarlarini ham mensimagan. Men faqat Jomiyni tan olaman, der ekan. N. uning Jomiy asarlarini pisand qilishiga ham shubha bildiradi. Keyinchalik u Jomiy va N. ta'sirida o'zidagi kibr-u g'ururni yengib, xoksorlik yo'lini tutadi. N. uning she'rlari xalq orasida mashhurligi haqida ma'lumot beradi.

"X." javobida "Layli va Majnun", "Shirin va Xusrav", "Haft manzar" ("Yetti manzara"), "Temurnoma", ("Za'farnoma") va "Sharafnoma" dostonlarini yozgan. Dastlabki ikki dostonini N. nomiga bag'ishlagan. Bu haqda Bobur shunday deydi: "Abdullo Masnaviygo'y "Xamsa" muqobalasida masnaviylar aytibtur. "Haft paykar" muqobalasida aytqon masnaviyig'a "Haft manzar" ot qo'yubtur. "Iskandarnoma" muqobalasida "Temurnoma" aytibtur. Bu masnaviylardin "Layli va Majnun" mashhurroqtur. Agarchi lato-

fati shuhraticha yo‘qtur”. Sharafuddin Roqimiy esa H. ijodiga, jumladan, “Layli va Majnun” dostoniga ham yuksak baho beradi.

Kichik lirik janrlarda ham qalam tebratib, jumladan, g‘azal va ruboiylar yozgan.

“Layli va Majnun” dostonida N.ga alohida fasl bag‘ishlaydi. “Mir Alisher ta’rifida” deb nomlangan bu faslda uni arab shoiri Hasson, buyuk fors-tojik san’atkorlari Firdavsiy va Xusrav Dehlaviylarga qiyoslaydi.

Ey Hotifiy, az tu xud chi oyad,
K-on shoni rafe’ro bishoyad.
Ne darxo‘ri vasfi o‘ bayone,
Ne loyiqi madhi o‘ zabone.

Tarj.: Ey Hotifiy, sen bu ulug‘ zotning ta’rifini qila olarmiding? Uning vasfi bayonga sig‘maydi, biror til uni madh eta olmaydi.

“Shirin va Xusrav” dostoni muqaddimasida ham N.ning yuksak insoniy fazilatlarini ulug‘laydi. Buyuk qudratini Xizr (a.s.)ga, saxovatini Hotami Toyga, qalamining kuchini Moniy qalami va Rustami doston shamshiriga qiyoslaydi hamda o‘zining shunday ulug‘ inson b-n zamondosh va unga shogird ekanligidan faxr-iftixor tuyg‘ularini izhor qiladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 2002; Соммирзо Сафавий. Тўҳфаи Сомий. – Теҳрон, 1347 (ҳ.ш.); Абдуқодиров А. Амир Алишер Навоий. –Хўжанд, 2003; Шарафуддин Роқимий. Тарихи томм (Ҳ.Бобобеков ва Н.Норқуловлар тарж.). – Т., 1998; Шодиев Э. Алишер Навоий ва форстожик адиблари. – Т., 1989.*

E.O., B.R.

HOFIZ ALI JOMIY (XV asr, Hirot) – olim, hofizi Qur’on. Barcha ilmlar, xususan, tasavvufda sohibkamol bo‘lgan. Farididdin Attorning bir qasidasiga sharh bitgan. Qiroat ilmidagi mahoratiga barcha qorilar tan berishgan. N ham “M.N.” tazkirasida uning huzurida bir necha saboq olgani haqida ma’lumot beradi. Qabri Hirotdagi Shayx Bahouddin qabristonida.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

E.O., S.O.

HOFIZ YORIY (XV asr, Hirot) – shoir, musiqashunos, bastakor, sozanda, xattot. Hirotda tug‘ilgan. She’r va musiqa ilmi, soz chalish san’atini avval otasi, so‘ng Ustod Shodiy va G‘ulom Shodiydan, xattotlik sirlarini Sultonali Mashhadiydan o‘rganadi. Maqomlarni chuqur o‘rganib, o‘zi ham kuy va ashulalar yaratadi. “Husayniy” maqomidagi “Kulliyot”, “Ushshoq” maqomidagi “Diloshub” amal tasniflari mashhur bo‘lgan. “Qavl” (“So‘z”), “Amal”, “Savt” (“Ohang”), “Peshrav”, “Kor” (“Ish”), “Rexta” (“Sochma”), “Kor va Usul” (“Ish va usul”) kabi ko‘plab kuylar ijod qilgan. Abdurahmon Jomiy ijodining oshuftasi bo‘lib, uning g‘azallariga ko‘plab kuylar bastalagan. Jumladan, Jomiy g‘azaliga bastalagan “Naqshi Mavlaviy” yo‘lidagi “Naqshi sitamkash” ashulasi shuhrat tutgan.

H.Y. sohibdevon shoir bo‘lib, N. “M.N.” tazkirasida mav’iza mazmunidagi bir baytini misol tariqasida keltiradi:

Garam bar sar hazor oyad balo shoistai onam,
Ki hastam badtarin az xalqu xudro nek medonam.

Tarj.: Agar boshimga ming balo kelsa, men shunga munosibman. Chunki odamlarning eng yomoniman-u o‘zimni yaxshi deb hisoblayman.

“Hofiz Yoriy “xushsuhbat va shirinkalom kishi erdi va ko‘proq avqot tilovat qilur erdi va hamisha faqir bila musohib erdi”, – deb yozadi u haqda N. – “Ixlosiya” madrasasida favt bo‘ldi va Ko‘chayi Safo boshida qo‘yildi”.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Ж. 1. – Душанбе, 1988.*

E.O.

HOFIZ JALOLIDDIN MAHMUD – N. ning zamondoshi, o‘z davrining fozil kishilaridan. “M.N” tazkirasida ma’lumot berilishicha, “Ixlosiya” xonaqohining shayxi va “Qudsiya” jome’ masjidining xatib va imomi bo‘lgan. Yaxshi mehrobxon hofiz edi. Ta’bi nazmi ham bo‘lib, she’r yozgan, muammo aytgan, yaxshigina xattot ham bo‘lgan. Iste’dodli kishi bo‘lganligidan qisqa fursatda turli sohada o‘zini ko‘rsatgan. Quyidagi matla’ uning shoirlik salohiyatiga misoldir:

Masih agar shunavad yak takallum az dahanash,
Digar az sharm naboshad majoli dam zadanash.

Tarj.: Masih agarda uning og‘zidan bir og‘iz eshitsa, xijolatdan dam urgani majoli qolmas edi.

Xondamir “Xulosat ul-axbor” asarining N. lutf-u tarbiyatida kamolga yetgan fozillarga bag‘ishlangan bobida uni shoir kutubxonasida ishlagan xushxat kotiblar safida zikr etib, xattotlar yetakchisi sifatida N.ga yaqin kishilardan bo‘lganligi haqida yozadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985.*

E.O.

HOFIZ MUHAMMAD (To‘liq ismi: Xoja Hofiz Muhammad Sultonshoh) – xattot, hofiz. N. kutubxonasida faoliyat ko‘rsatgan. Xondamirning “Xulosat ul-axbor” asarida ma’lumot berilishicha, katta bilim va mahorat egasi bo‘lib, o‘z davri xattotlarining yetakchisi edi. Nasta’liqdan tashqari, yetti qalamda yozish san’atini yaxshi o‘zlashtirgan. N.ga boshqa zamondoshlaridan ko‘ra yaqinroq bo‘lib, Jome’ masjidining imomligi va xatibligi unga marhamat qilingan.

N. “M.N.” tazkirasida uni xushxon hofiz va xushnavis xattot sifatida ta’riflaydi. Bundan tashqari, “solik va pokizaro‘zgor kishidur va yaxshi ta’bi ham bor” deb ijodidan namuna sifatida quyidagi matla’ni keltiradi:

Shakli hilol abro‘yat az chashmi tar naraft,
Mohi zi ayni bahr, bale so‘i bar naraft.

Tarj.: Yoshli ko‘zlarimdan hilol shaklidagi qoshlaring aksi sira ketmadi, zero, baliq ham daryodan qirg‘oqqa chiqmaydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985.*

E.O.

HOFIZ SHARBATIY (XV asr, Xuroson – Makka) – shoir, xonanda va bastakor. N. “M.N.”-da H.Sh.ni Xurosonning taniqli kishilaridan, deydi, Abu Said Mirzo Iroqda halok bo‘lganda (1468), H.Sh. Makkaga jo‘naydi va “M.N.” yozilayotgan davrgacha 25 yildan beri o‘sha yerda turg‘un bo‘lib qoladi. N. shoirning iste’dodini yaxshi baholaydi va uning hayotidan qiziq bir lavha keltiradi: Abulqosim Bobur zamonida, H.Sh., shoh va Mavlonzoda Abhariy degan shahar muftisi may ichib xiyobonda kelayotganlarida Bobur bir bayt o‘qib, Mavlonzodaga may tutadi. Hofiz qadahni olib, quyidagi baytni o‘qiydi va unga may uzatadi:

Dar davri podshohi atobaxshu jurmpo‘sh,
Hofiz qarobakash shudu mufti piyolano‘sh.

Tarj.: Muruvvatli va gunoh ishlarni yopib ketuvchi podshoh davrida Hofiz Soqiy bo‘ldi-yu mufti mayxo‘r bo‘ldi. Bu bayt Abulqosim Boburga juda ma’qul tushadi. N. H.Sh.ning odamshavanda, odob va tavoze’li kishi va xushxonlikda (hofizlikda, xonandalik) zamon yagonasi bo‘lganligini ta’rif qiladi, yaxshi naqsh-kuylari ham borligini qayd etadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

S.G‘.

HOFIZ QOZOQ (XV asr) – mashhur xonanda (hofiz). N.ning “Din ofati bir mug‘bachan mohliqodur...” deb boshlanadigan mustazodiga Abdulloh Marvorid bastalagan qo‘shiqni mahorat b-n ijro etgan. N. H.Q. ijrosida ana shu

qo‘shiqni eshitgan. Vosifiy ta’kidlashicha, Hirotda bu kuy va qo‘shiqni bilmagan odam bo‘lmagan. S.Ayniy ma’lumotiga ko‘ra asrimizning 20-30-yillarigacha Buxoroda bu qo‘shiq “Mashrabxoniy” nomi ostida ijro etilib kelgan.

Manbalarda qayd qilinishicha, H.Q. yoshi ulg‘aygan bir paytda N. xizmatiga kirgan. Bu haqda Xondamir “Xulosat ul-axbor” asarida shunday yozadi: “Hofiz Qozoq yoshi ulg‘ayib, oq-u qorani ajratadigan bo‘lib qolganda oliyhazrat amir Alisher xizmatiga kirdi va uning diqqat-e’tibori orqasida qonun chalishda tengi yo‘q kishiga aylandi. Yaxshi ovozi ham bor edi. Katta-yu kichik uning sozi va ovozini eshitib, ko‘p xushhol bo‘lardilar”. Bu ma’lumot N.ning iste’dodlarni yuzaga chiqarish, ular u-n sharoit va imkoniyatlar yaratib berishdagi xizmatlarini ko‘rsatuvchi yana bir dalildir.

Ad.: *Навоий замондошлари хотирасида. – T., 1985.*

S.G‘.

HUVAYDO (Taxallusi, to‘liq ismi: Xojanazar G‘oyibnazar o‘g‘li Huvaydo (1704–1780/81) – shoir, tariqat piri. Otasi G‘oyibnazar so‘fi Qashqardagi mashhur Ofoqxo‘ja eshonning muridlaridan bo‘lib, Farg‘onaning Chimyonida xonaqoh qurdirib, eshonlik qilgan. Voqean, piriga ixlosi yuzasidan o‘g‘liga Xojanazar nomini qo‘ygani naql qilinadi.

H. ta’lim-tarbiyani o‘z otasidan olgan. So‘ng Qo‘qon madrasalarida tahsilini kamolga yetkazib, qishlog‘ida maktab ochgan va uzoq yillar maktabdorlik qilgan, kosiblik b-n shug‘ullangan.

Shoir she’rlarini vafotidan keyin avlodlaridan o‘zi ham shoir bo‘lgan Soqib to‘plab, devon shakliga keltirgan.

Shoirning “Rohati dil” axloqiy manzumasi pandnoma turining go‘zal namunasidir. Unda ochko‘zlik, tamagirlik, vafo, boqiylik, foniylik, yaxshilikning foydasi, yomonlikning zarari, go‘zallik va mehnatsevarlik, moddiy va ma’naviy poklik kabi xilma-xil axloqiy mavzulardagi ibratli hikoyalar keltirilgan. H. diniy-axloqiy mazmundagi “Ibrohim Adham” nomli she’riy doston ham yozgan.

H. turkiy she’riyat sultoni N. ijodidan ham keng bahramand bo‘lib, undan mahorat sabog‘ini olgan, badiiy barkamol g‘azallaridan ilhomlanib, ularga qator tatabbu’lar qilgan, turli janrdagi asarlari ta’sirida mushtarak bayt-u misralar tizgan, buyuk salafining ko‘plab g‘oya-yu fikrlari, timsol-u tashbehlarini davom ettirib, ularni boyitgan, yangidan-yangi qirralarini ochgan.

H. N.ning “Oqibat”, “Topmadim”. “Aylab”, “Arz”, Hanuz”, “Qilg‘il”, “Topmadim”, “Keldimu”, “Bo‘lmasa” kabi qator g‘azallariga tatabbu’lar qilgan. Bu tatabbu’lar o‘ziga xosligi va ohorliligi b-n ajralib turadi. Jumladan, “Topmadim” radifli g‘azaliga tatabbu’sida salafi g‘azalidagi vazn va radifni, shuningdek, juz’iy tafovut b-n qofiya tizimini ham saqlaydi, ayni paytda o‘ziga xos ohorli g‘azal yaratadi:

Dunyoni kezdim yurub, dardimga
darmon topmadim,
Arz etarga dod deb bir adli sulton topmadim.

N. g‘azalida ijtimoiy motivlar bir qadar ustuvor: zamon va zamon ahlidan shikoyat ishqiy ohanglar b-n uyg‘unlashib ketgan bo‘lsa, H. tatabbu’si asosan ishqiy mavzuda hamda u sitamgar mahbuba va uning hajrida chekkan azoblari tasviriga bag‘ishlangan. N. g‘azalida ijtimoiy va ishqiy ohanglar o‘zaro o‘rin almashib tursa, H.da matla’dan keyin to‘laligicha ishqiy mavzu davom etadi. N.ning:

Tun aqshom keldi kulbam sori
ul gulrux shitob aylab,
Xiromi sur’atidin gul uza xaydin
gulob aylab, –

matla’si b-n boshlanadigan mashhur g‘azaliga ayni shu g‘azal ohangida, lekin mutlaqo boshqa qofiya va radifdagi g‘azal yaratadi. Chunki bu g‘azalni o‘qir ekansiz, nariga g‘azal xayolingizga kelaveradi:

Tun oqshom keldi kulbamga
nigori mehribon yolg‘uz,
Olib burqa’ jamolidin,
o‘zin qildi ayon yolg‘uz.

Har ikki g‘azal ham hazaji musammani solim vaznida. Bu g‘azal aynan tatabbu’ va nazira bo‘lmasa ham, bevosita ta’sir va ilhom samarasi ekanligi shubhasiz. Voqeabandlik asosiga qurilganligi ham bu o‘xshashlikni yanada mustahkamlaydi. H. ayni g‘azalga bevosita ham tatabbu’ qilgan:

Ko‘rung ul shahsuvorimni kelur
noz-u itob aylab,
O‘zig‘a bosh kesib, qonimni to‘kmakni
savob aylab.

N.ning 4 devonida “Oqibat” radifli 4 ta g‘azal mavjud. To‘rtala g‘azal ham 72-raqam b-n joylashtirilgan. To‘rtala g‘azal ham bir vaznda – ramali musammani maqsurda. H. tatabbu’si ham shu vaznda. Qofiya tizimiga ko‘ra Huvaydo ularning birinchisiga tatabbu’ qilgan.

H. “X.”dan ham yaxshigina xabardor bo‘lgani ko‘rinadi. Chunki shoirning ayrim baytlari N. dostonlaridagi ba’zi lavhalar va rivoyatlarga ham ishora qiladi. Jumladan, “H.A.” dostonining 14-maqolatiga 7 iqlimni olgan Iskandarning dunyodan quruq qo‘l b-n ketganligi haqidagi hikoyat ilova qilinadi.

H.ning: “Bu dunyo mulkiga kelib na bir narsa orttirdim-u na bir ko‘nglim to‘lgulik ish qildim – dunyodan quruq qo‘l b-n ketayotganimga yig‘layman”, – mazmunidagi mana bu bayti ayni rivoyatning mantiqiy xulosasi yanglig‘ jaranglaydi:

Bu dunyo mulkig‘a keldim –
na topdim man, na ish qildim,
Ko‘runglar, dasti xoli dunyodin
yong‘onga yig‘layman.

Ma’lum bo‘ladiki, N. ijodi H. u-n o‘ziga xos mahorat maktabi bo‘lgan. U o‘zining buyuk salafidan ta’sirlanib va ilhomlanib, uning g‘azallariga qator tatabbu’lar qilgan, ko‘plab mushtarak bayt-u misralar tizgan – ularda buyuk salafining muayyan fikr-u qarashlarini chuqurlashtirgan va kengaytirgan, ularning yangidan-yangi qirralarini ochgan, timsol-u tashbehlari silsilasini esa yanada boyitgan.

Ad.: *Ҳувайдо. Танланган асарлар. – Т., 1958; Хожаназар Ҳувайдо. Девон. – Т., 2005; Авлиёлар султони. – Т., 2004; Қосимов Б. Ҳувайдо // ЎзМЭ, 11-жилд. – Т., 2011; Очилов Э. Ҳувайдо ижодида Навоий анъаналари // “Алишер Навоий адабий ва илмий меросини ўрганиш масалаларига бағишланган 68-халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. – Т., 2023.*

E.O.

HUD (a.s.) – Hud payg‘ambar qissasi Qur’oni Karimning bir qator suralarida kelgan. Alohida “Hud” surasi ham mavjud. Boshqa bir sura u zotning yashagan joy nomi b-n “Ahqof” deb ataladi.

N. bu payg‘ambar zikrini boshlashdan oldin ba’zi tarix ahlining fikriga suyanib, Nuh (a.s.)dan Ibrohim (a.s.) davrigacha 1500 y. o‘tganini va ular orasida Hud (a.s.) va Solih (a.s.)lardan boshqa payg‘ambar yuborilmaganini yozadi. Aksar tarixchilarning ushbu fikri asarning Xantala ibn Savfon bo‘limidan keyin ham keltiriladi, biroq N. bu fikrga unchalik qo‘shilmagan holda, bu orada saltanat sohibi bo‘lgan 10 kishini, jumladan, Iskandar Zulqarnayn yashab o‘tganini eslab o‘tadi.

N. Hud (a.s.) nasl-nasabini shunday keltiradi: *“ul Abdulloh ibni Ramoh ibni Horis ibni Horut ibni Avaz ibni Eram ibni Som ibni Nuhning o‘g‘lidur. Aksar kutubda ani Obir ibni Solih ibni Arfaxshod ibni Som ibni Nuhdir”.* Uni Haq subhonahu va taolo Od qavmig‘a yubordi. Aytiladiki, Hud (a.s.)ni Alloh taolo birinchi Od qavmiga, Solih (a.s.)ni ikkinchi Od qavmiga yuborgan. Oralarida taxminan 100 yil o‘tgan.

Arabiston yarim orolidagi bir tog‘ vodiysida Od qabilasi bo‘lib, ular nihoyatda baquvvat, sog‘lom, yeyish-ichishdan serob, ob-havosi yoqimli joyda farovon hayot kechirishgan. Ularning “Odiy” deb atalishiga sabab haddan oshgan-

liklaridir. Arab tilida “odiy” – haddidan oshuvchi degan ma’noni beradi.

U qavm juda baland bo‘yli va baquvvat bo‘-lishgan. Butga sig‘inishgan. Ishlari ko‘p yemak va fisq-u fujur edi. Hud (a.s.) ellik yil ularni iymonga da’vat qildi. Ular gerdaygan, g‘ofil va zolimliklari tufayli Hud (a.s.)ning so‘zini tinglamadilar, yomon odatlaridan tiyilmadilar. Ular orasidan juda kam kishi iymon keltirib, iymonlarini maxfiy tutar edi. Hud (a.s.) qavmining sarkashligi bois ularni duoyibad qildi va duosi mustajob bo‘ldi. Tangri taolo ularni qahatchilik balosiga mubtalo qildi, ularga yetti yil yog‘in yog‘madi. Ko‘l va buloqlar ham quridi.

Boshqa bir manbalarda bu sana uch yil deb keltiriladi: “Alloh taolo Hud (a.s.)ning payg‘ambarliklarini mo‘jiza b-n quvvatlash, qavmlariga esa tavba qilib, hidoyat topib olishlariga imkon berishni iroda qildi va ketma-ket uch yil bir tomchi ham yomg‘ir yog‘dirmay, qurg‘oqchilikka mubtalo qildi”.

N. yozadiki: *“U paytda odat shu ediki, yomg‘ir yog‘masa, Makka haramig‘a borib, qurbon qilib, Haq taolodin yog‘in istab duo qilishar edi. Ular Luqmon ibni Odni bir necha kishi bila yomg‘ir duosi uchun Makkaga yuboradilar. Luqmon ham yashirin iymon keltirganlardan edi, ammo oralarida ba’zisi kofir erdi. Ular duo qilgach, uch pora bulut paydo bo‘ldi: birining rangi oq, birining rangi qizil, birining rangi qora. Shuningdek, osmondin, “Od qavmig‘a qaysi bulut kerak?”*, – degan nido keldi. Luqmonning yo‘ldoshi kofir edi, qaro bulut suvga boy bo‘ladi, degan tama b-n qavmi u-n qora bulutni tiladi. Tengri taolo uning duosi b-n hojatini chiqardi. Aslida u qora bulut sarsar yeli edikim, uni “rihul aqim“ deydilar. Od qavmiga yetti kecha va sakkiz kun sarsar yeli esdi. Shunday bo‘ldiki, baland imoratlari yiqildi va daraxtlar qo‘porildi. O‘z kuchlariga mag‘rur qavm xuddi xas-xashakdek yelga sovurildi, tog‘ va toshga urilib, barisi halok bo‘ldi. Bu hol shavvol oyida “bard ul-ajuz” vaqtida edi”.

N. keltirgan ushbu “kampir sovug‘i” ma’-nosini beruvchi “bard ul-ajuz” hozirda xalq tilida yuradigan “ayyomi ajuz” (ayamajuz), ya’ni kampir kunlaridir. Rivoyatlarda aytilishicha, mazkur qavmga kelayotgan sarsar yelini (o‘ta kuchli, qattiq shamolni) birinchi bo‘lib o‘tin terishga chiqqan kampir ko‘rgan ekan. Shuning uchun ham xalqimizda yetti kecha va sakkiz kun izma-iz esadigan shamolni “ayyomi ajuz” – kampir kunlari deb atash odat bo‘lib qolgan. Xalq orasida hatto “Ayamajuz” olti kun, olti oy qishdan qattiq kun” degan gap ham yuradi. Bu kunlar ko‘proq fevral oyining oxirlari va mart oylari boshida bo‘lar ekan. N. bu kunlar shavvol oyida bo‘lib o‘tganini eslatgan.

N. Hud (a.s.)ning necha yil yashagani haqida ixtilof borligini aytadi: Ammo “Sohibi guzida” (Hamdullo Mustavfiy)ga ko‘ra – kuffor daf’idin so‘ngra, ellik yil tirik umr ko‘ribdi va yuz ellik yashagandin so‘ng, olamg‘a vido’ qildi. Ibriy (qadimgi yahudiy) tili b-n uni (Hudni) Obir deydilar. Ibriy so‘zi ham Obirdan mushtaq (o‘zakdosh, olingan so‘z)dir. Arab Hud dedi, ya’ni, nabiyulloh deydilar, mo‘jizalari ko‘pdir. Shu, jumladin, biri Od qavmini daf’ qilgani edi.

Ul qavmi azim dedilar oni Od,
Sardorlari Shadid yoxud Shaddod.
Bir dam elidin oqibat ul ahli inod,
Xoshok kabi borchasi bo‘ldi barbod.

Hazramavt aholisining aytishicha, Hud (a.s.) ning qabrlari mamlakatning sharqida Barhut vodiysidagi Taryam shahridadir. Ba’zilar Falastindagi bir qabrni Hud (a.s.)ga nisbat beradilar, bu nisbat haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Пайғамбарлар тарихи (Исломият тарихи). – Т., 2014; Носируддин Бурҳониддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. 2 жилдлиик. 1-жилд. – Т., 1990; Муҳаммад Саййид Тантовий. Пайғамбарлар тарихи. 1-2 жилдлар. – Т., 2014.*

S.R.

HUDHUD (ar.: boshida toji bor qush; popishak) – Sulaymon (a.s.)ning sevimli qushi. Bu afsonaviy qush go‘yoki Sulaymon (a.s.)ning doimiy hamrohi bo‘lib, uning so‘zlarini Sabo shahri malikasi Bilqisga yetkazib turgan. U payg‘ambarning pand-u nasihatlariga quloq solar va aqlli qushlardan hisoblanar edi. Odamlar tasavvuri va adabiyotda u aql-u idrok ramzi sifatida gavdalanadi.

H. – “L.T.” dostonining markaziy qahramoni. Ma’lumki, bu ramziy-majoziy dostonda qushlar – soliklar, H. esa ularni Simurg‘ – Haq sari boshlagan tariqat piri, komil murshid, Haqqa yetgan orif, umuman, N. talqinidagi komil inson timsoli bo‘lib keladi. Bu obrazni yaratishda shoir Qur’oni Karimning “Naml” (“Chumoli”) surasidagi Sulaymon (a.s.) va H.ga oid oyatlarga va salaflari, xususan, Farididdin Attor an’analariga tayanadi.

Hudhud “L.T.” dostoniga qushlar majlisda joy talashib janjallashganlari va aql-u ilmda yetuk, adl-u insofda tengsiz qudratli va shavkatli shohlari bo‘lishini orzu qilganlari sahnasida kirib keladi va ularning barcha holidan ogoh, har biriga bo‘yin tomiridan ham yaqin, lekin idrokiga aql ojiz bo‘lgan Qof tog‘ini manzil tutgan dunyodagi barcha qushlarning shohi Simurg‘ haqida xabar beradi. Qushlar bir ovozdan Sulaymon (a.s.) dargohiga yo‘l topib, uning hamroziga aylangan, payg‘ambar b-n Sabo shahri malikasi Bilqis o‘rtasida elchilik qilgan H.dan o‘zlariga rahbar bo‘lib, Simurg‘ sari yo‘l boshlashini iltimos qiladilar. Muallif ta’rifida:

Hudhud ul nuri xiraddin bahramand,
Rohbarlig‘ afsaridin sarbaland.

Zotida izzat sharaf me’rojidin,
Boshida zevar hidoyat tojidin.

Jabrailoso ayon yuz roz ango,
Qurb arshi avjida parvoz ango.

Qushlar qat’iy turib so‘raganlaridan keyin H. Simurg‘dan nishonalar aytadi:

Birlik oyinida zoti oning,
Lek mingdin ko‘p sifoti oning.

Qushlar ilohi haqida yana shunday deydi:

Siz tushub ul shohdin behad baid,
Ul yoqinroq sizga min habl ul-varid.

Habl ul-varid – bo‘yin tomiri. Qur’oni Karim “Qof” surasi 16-oyatiga ishora: “Biz insonga uning bo‘yin tomiridan ham yaqinroqmiz”.

Bundan qushlarning shavq o‘ti ziyoda bo‘ladi va H.dan Simurg‘ga yetish yo‘lida o‘zlariga rahnamolik qilishini so‘raydilar. O‘z navbatida, H. fursatdan foydalanib, qushlarni “asliy gulshan”-ga targ‘ib etadi. Shu tariqa qushlar H. rahbarligida Simurg‘ sari uzoq va mashaqqatli safarga chiqadilar.

Bo‘ldilar Hudhudg‘a payrav sarbasar,
Rohrav ul xaylu Hudhud – rohbar.

Lekin yo‘l azobiga chidolmay, qushlar birinketin ortga qaytish u-n uzr ayta boshlaydilar. Bu uzrlarning har biriga H. asosli dalillar b-n javob qaytarib, o‘zining tajribali va dono rahbarligini namoyish etadi. Qushlar o‘zlarining Simurg‘ga qanday munosabatlari borligini so‘raganlarida barcha qushlarning surati uning soyasi ekanligini aytadi. Shayx San’on qissasidan keyin qushlar ruhiyatida o‘zgarish bo‘ladi. Ishtiyoq g‘olib bo‘lib, yo‘l mashaqqatlaridan ogoh yo‘lboshchi istab, H.dan bu ishni iltimos qiladilar. U rozi bo‘lmagach, qur’a tashlaydilar. Qur’a H. nomiga chiqadi. Qushlar H. boshchiligida parvozni davom ettirib, cheksiz bir vodiy boshiga keladilar va xavotir iskanjasida qolib, H.ga riyozat yo‘liga aloqador savollar b-n murojaat qiladilar. Shu yerdan e’tiboran shoir, qushlarni nomi b-n atamay, hammasini “bir qush” deb zikr etib ketaveradi. Chunki endi ularning bari bir yo‘l toliblariga aylangan, hammasining maqsad-muammosi bir edi. “Irfonpanoh murshid” Sulaymon (a.s.)ning nazari tushganligi u-n shunday yuksak martabaga erishganligini ta’kidlab, qushlarning riyozat yo‘li b-n bog‘liq savollariga javob qaytarib, fikrining isboti

sifatida har biriga mavzuga oid bir rivoyat keltiradi. Bu savol-javoblarda tariqat yo‘lining talablari va solikning ahvoli b-n bog‘liq tasavvufning ko‘plab masalalari ochib beriladi. Shundan keyin birma-bir 7 vodiy (Talab, Ishq, Ma’rifat, Istig‘no, Tavhid, Hayrat, Faqr-u fano) ta’rifiga o‘tiladi (Jaloliddin Rumiy, bu 7 vodiyni 7 ishq shahri, deb lutf etadi). Nihoyat Fano vodiysini bosib o‘tgan qushlar baqo mulkidan nishon topadilar.

N. H. obrazida ma’rifatdan ogoh, Haqqa yetgan murshid siymosini gavdalantirib, uning tilidan o‘zining tasavvuf haqidagi qarashlarini bayon etadi. “L.T.” bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan va asarning ilmiy-tanqidiy matnini tuzgan Sh.Sharipov: “Hudhud obraziga Navoiyning falsafiy masalalarga oid qarashlarini ifoda etuvchi badiiy vosita sifatida qarash mumkin”, – deb yozgan edi. H. dostonning boshidan oxiriga qadar aqlli, ilmli, tajribali, vazmin, muloyim, ogoh, nuktadon rahbar sifatida namoyon bo‘ladi va o‘zining hayotiy va ilmiy dalil-u asoslarga tayangan javoblari b-n qushlarning ishonchini qozonib, ularni shunday uzoq va mashaqqatli yo‘lga rag‘batlantirib, ortidan ergashtiradi. U Simurg‘ va qushlar o‘rtasida vositachi vazifasini bajaradi. Ayni jihatdan, H. N. idealidagi komil insonning badiiy talqini, qaysidir darajada hatto buyuk shoirning ko‘pgina qirralarini o‘zida aks ettirgan timsoli deyish mumkin.

H.ni majoziy-irfoniy yo‘nalishdagi dostonlar u-n asosiy qahramon sifatida Attor “Mantiq ut-tayr” dostoni orqali adabiyotga olib kirdi. Albatta, bunda u Qur’oni Karimdagi qarashlar va Sharq xalqlari folkloridagi tasavvurlarga asoslanadi. Ma’lumki, Qur’onning 27-surasi 20–27-oyatlarida Sabo shahrida Bilqis degan malika hukmronlik qilishi va qavmi quyoshga sajda qilishi haqida Sulaymon (a.s.)ga H. xabar beradi. Shuning u-n ham u Sharq adabiyotida qush obrazi bo‘lib keladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Шайх Фаридуддин Аттор. Мантиқ ут-тайр. – Т., 2006; Қаюмов А. Асарлар. 2-жилд. – Т., 2008; Мамадалиева З. “Лисон ут-тайр образлари: рамз ва мажоз олами. – Т., 2014.*

E.O., M.A., Z.R.

HULKAR – Q.: PARVIN.

HUMO – tog‘larning eng yuksak cho‘qqisida yashaydigan afsonaviy qush bo‘lib, go‘sht yemay, suyakning o‘zi b-n oziqlanadi. Og‘zaki va yozma adabiyotda H. tavsifiga ko‘p duch kelamiz. Afsonalarga ko‘ra, kimning boshiga bu qushning soyasi tushsa, o‘sha kishi baxtli, badavlat bo‘ladi. Qadim zamonlarda biror mamlakatning podshohi vafot etsa, H.ni havoga uchirganlar va u kimning yelkasiga qo‘nsa, o‘shani podshoh qilib ko‘targanlar. Ba’zi afsonalarda H.ning o‘rniga burgut yoki lochin keladi. N. asarlarida ham H. obrazidan istifoda etilgan. M-n:

Humo dog‘i bor o‘ylakim karkase,
Vale bor aroda tafovut base.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 3. – Душанбе, 2004.*

E.O.

HUMOYUN Farrux Rukniddin – eronlik adabiyotshunos olim. 1963-y.da Tehronda “D.F.” nashrini amalga oshirgan. Lekin bu nashr devonning to‘liq nusxasi emasligi keyin ma’lum bo‘ldi. Nashrda g‘azal – 485, ruboiy – 59 ta, qit’a – 34 ta, ta’rix – 11 ta, muaamo – 16 ta, musaddas – 1 ta, tarkibband – 1 ta. Holbuki, N. “To‘la asarlar to‘plami” 5-jildida nashr etilgan “D.F.”da bu nisbat quyidagicha: g‘azal – 552 ta, musaddas – 1 ta, marsiya – 1 ta, qit’a – 64 ta, ruboiy – 72 ta, ta’rix – 16 ta, muammo – 266 ta, lug‘z – 9 ta.

Ad.: *Алишер Навоий. Девони Фоний. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Шодиев Э. Алишер Навоийнинг форс-тожик тилидаги асарлари. – Т., 1990.*

E.O.

HURMUS – qadimgi Yunon donishmandi Germes (miloddan avvalgi 243–189-yy.)ning Sharq ilmiy, tarixiy va badiiy asarlarida nomlanishi. N.ning “S.I.” dostonida H. Iskandar xizmatidagi “besh yuz hakim”dan, ya’ni kecha-yu kun-

duz” hukmdor b-n birga bo‘lgan o‘n maslahatchi-donishmanddan biri sifatida tasvirlangan. Syujet rivoji davomida H. ikki yuz hakim-hunarmandlarga ilmiy rahbarlik qilib, suturlob ixtirosida faol qatnashadi. Iskandar vafoti munosabati b-n uning onasiga Aflotun, Suqrot, Balinos, Burotlar qatorida ta’ziya bildirib, taskin beradi, iztirob chekmaslikka da’vat etadi. H. dostonda Iskandar u-n yo‘l-yo‘riq, pand, ibrat va nasihat-maslahatlardan tashkil topgan maxsus “Xiradnoma” yozgan yetti donishmand jumlasiga kiradi. U o‘z “Xiradnoma”sida hukmdorni shafqatli bo‘lishga, saxovatga chaqiradi, sha’n-u shavkat orttirish maqsadida qilingan isrofgarchilikni qoralaydi:

Saho ul dururki shahi nomvar,
Basirat ko‘zi birla aylab nazar.
Berur luqma angakim och erur
Olur ko‘nglin aningki – muhtoj erur.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

A.A.

HUSAYN Boyqaro – Husayn binni Mansur binni Boyqaro binni Umarshayx binni Amir Temur (842/1438–1506, Hirot). Xuroson hukmdori, shoir. Hirotning sharqiy shimolidagi Davlatxona saroyida dunyoga kelgan. Otasi G‘iyosiddin Mansur Boyqaro mirzoning, u esa Amir Temurning o‘g‘li Umarshayxning farzandi edi. Onasi Feruzabegim esa ota tomondan Amir Temurning katta qizi Og‘obegim, ona tomonidan Mironshohga borib bog‘lanadi. Ikki tomondan ham temuriylarga mansub bo‘lganligi u-n Bobur H.B.ni “karim ut-tarafayn” degan edi.

7 yoshida otadan yetim qolgan qobiliyatli va ziyrak H.B. 14 yoshigacha ilm tahsili b-n mashg‘-ul bo‘ladi. 1452-y.da Abulqosim Bobur xizmatiga kiradi va ijtimoiy-siyosiy hayotga sho‘ng‘ib ketadi. 1454-y.da uning Samarqandga – Abusaid mirzoga qarshi yurishida qatnashgan. Abulqosim Bobur yengilgach, sulh tuzib, Hirotga qaytgan, H.B. esa onasining tavsiyasi b-n Abusaid mirzo saroyida qolgan. Ko‘p o‘tmay, u qamalgan. Feruzabegim uni qutqarib, Hirotga olib kelgan. Abulqosim Bobur vafot etgach, Marv hukmdori Sanjar mirzo xizmatiga kiradi va uning qizi Beke Sultonbegimga uylanadi. Sulton Sanjar o‘rniga H.B.ni qo‘yib, Mashhadga yurish qiladi. Bu orada Marvda H.B.ga qarshi fitna uyushtirilib, u ovga chiqqanda, shahar darvozalari berkitib olinadi. H.B. 1457-y. qishni Marv b-n Xiva oralig‘idagi biyobonda o‘tkazadi. 1458-y.da 300 kishilik qo‘shin b-n Sulton Sanjarning yaqinlaridan Bobo Hasan qo‘shinini yengib, Niso viloyati, so‘ng Astrobodni egallaydi. 1459-y.da H.B. huzuriga Abdurazzoq Samarqandiy elchi bo‘lib keladi. 1460-y.da vaziyat taqozosi b-n Astrobodni tashlab chiqishga majbur bo‘ladi. Ammo 1461-y.da shaharni qaytarib oladi. Shu yilning yoz oxirlarida Hirotga yurish qiladi. Lekin Abusaidga bas kelolmay orqaga chekinadi, buning ustiga, Astroboddan ham mahrum bo‘ladi. Amudaryo orqali Xorazmga o‘tib, Vazir shahriga – Mustafoxon huzuriga elchi yuborib, o‘zbek xonini Abusaidga qarshi birgalikda kurashishga da’vat etadi. Lekin elchi kelguncha uning og‘asi Pir Budog‘ b-n kelishib, unga singlisi Badi’uljamolbegimni xotinlikka beradi, ikkalasi Mustafoxon ustiga yurish qilishadi, lekin Vazir shahrini ololmay, u b-n bitim tuzadilar. Keyin H.B. Adoqqa borib, 1461-y. oxirlarigacha o‘sha yerda qoladi. Adoq Abusaid b-n kurashda unga tayanch vazifasini bajarib, shu yerda turib Astrobod, Gurgon va Eronning boshqa nohiyalariga hujumlar uyushtirib turadi, mag‘lubiyatga uchraganida shu yerdan panoh topadi. Mustafoxon zulmiga qarshi ko‘tarilgan isyondan foydalanib, avval Vazirni, 1462-y.da Urganch va Xivani qo‘lga kiritadi. Lekin oradan bir yil o‘tmay, Abusaid uni Xorazmdan surib chiqaradi. 1462–63-yy.larda Niso atrofida paydo bo‘ladi. 1463–64-yy.larda Urganch, Xiva, Hazorasp, Tirsakni qo‘lga kiritadi. Shu orada kuch to‘plab, yana Xurosonga hujum qiladi. Bu orada Abusaid qo‘shinlari Xivani egallaydi, H.B. uni

qaytarib oladi. 1467-y.da yana Urganchni egallaydi. Shu yili u o‘zbeklar xoni Abulxayrxondan yordam so‘rab, Dashti Qipchoqqa boradi. Xon yordam va’da qiladi, lekin betob bo‘lib qolganligi tufayli bu va’da amalga oshmaydi. 1469-y. martigacha Xorazm va Buxoro o‘rtasida sarson-sargardon yurgan H.B. Abusaid vafot etgach, Hirotni egallab, 1469-y. 24-martda uzoq siyosiy olishuvlardan so‘ng, Xuroson hokimiyatini qo‘lga kiritadi, so‘ng Samarqanddan saboqdoshi va do‘sti N.ni maxsus yorliq b-n chaqirib oladi hamda muhrdorlik vazifasiga tayinlaydi. N. do‘stining taxtga chiqishi munosabati b-n qutlab, unga “Hiloliya” qasidasini bag‘ishlaydi. 1469–70-yy. da Shohruxning avlodlaridan Yodgor Muhammad Mirzo b-n Abusaid Mirzoning o‘g‘li Sulton Mahmud Mirzo taxt da’vogarlari sifatida maydonga chiqadi. Yodgor Mirzoning tarafdorlari, xususan, ammasi Poyanda Sultonbegim Hirot ichkarisida zimdan ish olib boradi. 1470-y.ning iyulida Husayn Boyqaro qo‘shin b-n dushmanga qarshi jangga ketganda, poytaxtda sotqin bek va amaldorlar Yodgor Mirzo nomiga xutba o‘qitganlar. Husayn Boyqaro bir oydan so‘ng N.ning tadbirkorligi b-n Yodgor Mirzoni qo‘lga olib, taxtni qayta egallaydi va umrining oxirigacha hukmdorlik qiladi. Saltanatiga Xorazm, Seyiston, Qandahor, Balx, G‘aznadan Damg‘ongacha bo‘lgan yerlar kirgan. Yurak xastaligidan vafot etgan H.B. o‘zi qurdirgan madrasa ichidagi maqbarada dafn etilgan. Hozir maqbara vayron bo‘lgan, qabr va uning ustiga o‘rnatilgan “Sangi haft qalam” saqlanib qolgan.

Boburning ta’kidlashicha, H.B. shijoatli va “mardona” kishi bo‘lgan va Temurbek naslidan eng ko‘p “qilich chopgan”, jang-u jadallar olib borgan. Tadbirkor, qo‘rqmas va jasur bo‘lgan. U “Boburnoma”da H.B.ning tashqi portretini quyidagicha chizib beradi: “qiyiq ko‘zluk, sherandom bo‘yluq kishi edi. Belidin quyi ingichka edi. Bovujudkim, ulug‘ yosh yashab, oq soqolliq bo‘lub edi, xush-rang, qizil-yashil abrishimni kiyar edi. Qora ko‘zi bo‘rk kiyar edi yo qalpoq. Ahyonan iydlarda kichik sepech dastorni yap-yassi yomon chirmab, qarqaro o‘tag‘asi sanchib, namozg‘a borar edi”.

H.B. davrida Hirot Sharqning fan, madaniyat, hunarmandchilik rivojlangan yirik markaziga aylandi: turli mamlakatlardan iste’dod sohiblari Hirotga panoh axtarib kelganlar. O‘sha davrda Hirot kabi turli o‘lka vakillari to‘plangan shahar bo‘lmagan. Natijada, til, adabiyot, tarix, tasviriy san’at, tabobat, handasa, musiqa, qog‘oz ishlab chiqarish, tomosha san’ati va b. sohalar rivojlangan. Hirot, Mashhad, Marv, Nishopur singari shaharlarda ko‘plab noyob obidalar barpo etilgan. Mahalliy hunarmandlar ishlab chiqargan mahsulotlar Xurosondan tashqarida ham mashhur bo‘lgan. H.B., N. va Jomiy ko‘plab iste’dodlarni kashf etib, ularni moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlaganlar. Abdurahmon Jomiy, Lutfiy, N., Kamoliddin Binoiy, Zayniddin Vosifiy, Mirxond, Xondamir, Badriddin Hiloliy, Husayn Voiz Koshifiy, Atoulloh Husayniy, Sultonali Mashhadiy, Abdujamil Kotib, Kamoliddin Behzod, Shayxim Suhayliy, Mirak Naqqosh, Qosim Ali Chehrakusho, Shohquli kabi o‘z davrining zabardast shoir, olim, muarrix, musiqachi, xattot, naqqoshlari xuddi shu zamonda yetishib chiqqanlar va faol ijod qilganlar.

Boburning “Sulton Husayn Mirzoning zamoni ajab zamone edi, ahli fazl va benazir eldin Xuroson, bataxsis Hiri shahri mamlu edi. Har kishiningkim bir ishga mashg‘ullug‘i bor edi, himmati va g‘arazi ul edikim, ul ishni kamolg‘a tegurg‘ay”, – deb ta’riflashi bejiz emas.

H.B. o‘zbek tilida yozishni rag‘batlantirgan va shunga da’vat qilgan. O‘zi ham badiiy ijod b-n shug‘ullanib, Husayniy taxallusi b-n she’rlar yozgan, she’riyat majlislari tashkil etib, shoirlarga rahnamolik qilgan. Undan bizgacha she’rlar devoni va N.ga bag‘ishlangan “Risola” asari yetib kelgan. “Risola” asari 1945-y.da turk olimi Ismoil Hikmat tomonidan topilib, ilmiy muomalaga kiritilgan. Shoh-shoirning hozirgacha 202 g‘azal, Navoiy g‘azaliga bog‘langan 3 muxammas, 6 ruboiy, shuningdek, fors-tojikcha 2 g‘azal, 1 ruboiy va bir necha baytlari ma’lum. G‘azallarning hammasi ramal bahrida. N.ning “M.A.”da yozishicha, H.B. “Turkigo‘y laqabi bilan mashhur bo‘lgan “ramali musammani

maqsur” vaznining g‘oyat ravonlig‘ va latofatlidin ruhparvarlig‘ va salosatidin o‘z devonlarin... boshtin-oyoq iltizom qilib bu vaznda tartib beribdurlar erdi”.

H.B.ning deyarli barcha g‘azallari muhabbat mavzusida yozilgan. Bunda u she’riyatdagi mavzuda an’anaga ham asoslangan, ayniqsa, N. lirikasiga tayangan. “M.N.”ning sakkizinchi majlisini maxsus H.B. she’riyati tahliliga bag‘ishlagan N. shoir kuylagan ishqning qudrati va u tufayli oshiqqa yuzlangan iztirob, hayajonlarni noyob tashbehlarda, go‘zal obrazlarda ifodalagani haqida to‘xtalib o‘tgan.

H.B. she’riyati hayotiy o‘z muallifining shaxsiyatini namoyon etuvchi tabiiy jarangga ega bo‘lganlari oz emas.

Ey Husayniy, charh zulmi buyla bo‘lsa men dag‘i,
Ashk to‘foni bila gardun binosin qo‘ng‘aray. –

deb yozar ekan, H.B. o‘zining muvaffaqiyatsizlikka, g‘am-aziyatlarga duch kelganiga ishora qiladi. Baytda bade’ning go‘zal san’atlaridan “g‘uluv”ning g‘oyat o‘rinli ishlatilishi esa uning shoirlik mahoratidan dalolat beradi.

H.B.ning tili nihoyatda ravon, jonli xalq tiliga juda yaqin. Unda sun’iy jimjimadorlik, arab va forsiy iboralar, deyarli, uchramaydi. H.B.ning N. g‘azallariga qilgan tatabbu’lari, bog‘lagan muxammaslari alohida ajralib turadi. Ularda dunyoviy ruhdagi lirizm ustunlik qiladi.

Quyidagi ruboiyda:

Ey charxi jafogar, ne sitamlar qilding,
Jonimni nishonayi alamlar qilding.
Muhlik nafasim o‘tin alamlar qilding,
Uzringni nechuk qulay, karamlar qilding. –

ma’lum darajada shoirning ijtimoiy qiyofasi o‘z aksini topgandir.

H.B. “Risola”si (q) N.ning “N.J.”ga yozgan so‘zboshisida qayd qilinishicha, 1485-y.da yaratilgan. Asar kechinmalarga boy bo‘lib, samimiyat va ko‘tarinki ruhda bitilgan. Unda muallifning shaxsiy kechinmalarga boy faoliyati N. va Jomiy ijodlariga, shaxsiyatlariga munosabati qalamga olinadi.

N. “M.N.” tazkirasining sakkizinchi majlisini butunicha H.B. ijodiga bag‘ishlab, devonidagi 164 ta g‘azalining matla’sini keltiradi va u qo‘llagan badiiy timsollar, she’riy san’atlar, nozik ma’no va ohorli tashbehlar xususida fikr yuritadi. Jumladan, uning “Xo‘b ash’ori va marg‘ub abyoti bag‘oyat ko‘ptur” deb, matla’larini “Bu matla’ g‘arib ado topibdur”, “Ajab o‘tluq matla’ tushubturkim”, radifi “Bag‘oyat shirin va dilpazir va rangin voqe’ bo‘lubtur”, “Bu matla’dek oz voqe’ bo‘lubturkim”, “Bu matla’ so‘znok voqe’ bo‘lubturkim”, “Bu matla’ yagona va bag‘oyat oshiqona voqe’ bo‘lubtur” kabi sifatlar b-n ta’riflaydi.

N. “X.M.” debochasida ushbu to‘plamning aynan Husayn Boyqaro tashabbusi b-n tuzilganini alohida ehtirom b-n qayd qilib o‘tadi: “...kulliyragi bukim, ul davovin (“Xazoyin ul-maoniy”) tartibida Sultoni sohibqironning oliy tab’ining isloh-u ihtimomi behad va har juzviy nuktada tag‘yir-u ta’limi molo kalomi beadad erkan jihatdin ul ish saranjom suratin paydo qildi va iftitohidin ixtitomig‘a (boshlanishidan oxirigacha) deguncha tartib raqami chekildi”.

H.B.dan 14 o‘g‘il, 11 qiz qolgan. Badiuzzamon mirzo, Shohg‘arib mirzo, Muhammad Husayn, Ibrohim Husayn kabi o‘g‘illari badiiy ijod b-n ham shug‘ullanishgan. Keyinchalik o‘zaro ichki urushlar, H.B. va saroy amaldorlarining maishatga berilib ketishi oqibatiga Xuroson davlati zaiflashgan. Uning vafotidan so‘ng Hirot shayboniylar tomonidan zabt etilgan (1507).

H.B. hayoti, faoliyati va ijodini o‘rganish, merosini nashr etishda V.V.Bartold, Y.E.Bertels, A.Y.Yakubovskiy, S.Ayniy, O.Sharafiddinov, H. Zarif, V.Zohidov, A.Hayitmetov, S.G‘aniyeva, H.Orasli, I.Hikmat, M.Y.Juzjoniy, T.Ganjaviy, T.Fayziyev, H.Homidiy, A.Rustam, K.Hasan, A.Erkinov, Sh.Abdullayeva, A.Abdug‘afurov, H.Jo‘rayeva kabi olimlarning xizmati katta.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011;*

Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Назм ул-жавоҳир. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Заҳиддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 1961; Суйима Ғаниева. Ҳусайн Бойқаро. Девон. Рисола. – Т., 1968; Ўзбек адабиёти тарихи. – Т., 1978; Ҳусайн Бойқаро. Жамолингдин кўзум равшан. Ғазаллар. – Т., 1991; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 2001; Ўзбек адабиёти тарихи. 2-жилд. – Т., 1977; Аҳмедов Б. Тарих сабоқлари. – Т., 1994.

S.G‘., E.O., S.R., B.R.

HUSAYN BOYQARO “RISOLA”SI – Husayn Boyqaroning nasriy asari. 1485-y.da yozilgan. Bu sanani N. “N.J.” asarining muqaddimasida (“fayz” so‘zida) beradi. Abjad hisobida bu so‘zdan 890 (1485) chiqadi. Asar an’anaviy “hamd” b-n boshlanadi, Haqning ta’rifidan so‘ng o‘z shukronalarini bayon etib, himmat etagini tutib, g‘urur va qusurlarga yo‘l qo‘ymagani, taxtga musharraf bo‘lgan ba’zi ajdodlarning zulmpeshalik va tajovuzkorlik qilganliklari, vaqf qoidalarini buzganliklari, u esa bularni bartaraf etib, o‘zgacha siyosat tutganini yozadi. Birinchi tadbirlar qatorida madrasalarda tartib, o‘tiladigan fanlar, talaba va mudarrislar u-n yaratilgan sharoit, yo‘llarda xavfsizlikni ta’minlash, manzillarda rabot va karvonsaroylar bino qilish va h.k.ni sanab o‘tadi. Bunday rejalar asosida yuzaga kelgan o‘zgarishlar ko‘lamini e’tirof etgach, muallif o‘z zamonida ilm-ma’rifat, madaniyat va adabiyot keng rivoj yo‘liga qo‘yilganini alohida qoniqish b-n yozadi.

Mingga yaqin so‘z san’atkorlarining badiiy ijod b-n mashg‘ul ekanliklaridan faxrlanadi. Abdurahmon Jomiyni yuksak hurmat b-n tilga olib, shoirlar ahlining eng mo‘tabar va afzali, fazilatlar daryosining pok durri, deb ta’riflaydi. Asarda Husayn Boyqaro N. b-n hamisha hamsuhbat, hamdam ekanligidan, u b-n do‘stlik qadimdan bo‘lib, ko‘kaldoshlik-emikdosh birodarlik darajasiga ko‘tarilganligini ham zo‘r farah b-n yozgan. Husayn Boyqaro, eng avvalo, N. haqida “haq so‘z adosinda daler” (ya’ni, haqiqatni aytishda jasoratli) bo‘lganligini ta’kidlaydi. N. she’riyatdagi dahosi haqida: *“... turk tilining o‘lgan jasadig‘a Masih anfosi bila ruh kiyurdi va ul ruh topqonlarg‘a turki oyin alfoz toru pudidin to‘qulg‘on xulla va harir kiydurdi. Va so‘z gulistonida navbahori tab’idin ravonoso yog‘inlar bila rangovar qatlar bilan gunogun durrlar sochdi”,* – deb e’tirof etadi. N.ning o‘sha davrlardagi shuhratini quyidagicha obrazli qilib ta’riflaydi: “Har sinf she’r maydonig‘akim, takovar surdi – ul kishvarni tig‘i zabon bila o‘z xittayi tasarrufiga kivurdi. Uning nazmi vasfida til qosir va ojiz turur”.

Husayn Boyqaro N. “X.”siga ham yetuk ta’rif beradi. Agar Nizomiy o‘z “X.”sini 30 y., Amir Xusrav 5-6 y. mobaynida yozgan bo‘lsa, N. ikki y. davomida tugalladi, deb ta’kidlaydi. U yozadi: “Aning afsonalari ranginlig‘in va abyoti sehroyinlig‘in va tarokibi matonati va maoniysi latofatin mutolaa qilg‘on kishi bilg‘ay va mulohaza qilg‘on kishi fahm qilg‘ay”.

N. devoni – deydi Husayn Boyqaro, – sof so‘zlarga – gavharlarga to‘la va har sahifasi pok ma’nolarga – yulduzlarga to‘ladir. U o‘z ta’rifini shunday tugallaydi: *“...nazm iqlimida qaysi berk qo‘rg‘onga kuch kelturdikim, eshigi aning yuziga ochilmadi va qaysi azim kishvarga tab’ cheriki bila turktoz soldikim, fath qilmadi”.*

Bu kun nazm arkonning rub’i maskunida qahramon ul turar va mamolik fathiga sohibqiron ani desalar bo‘lur. She’r:

Erur so‘z mulkining kishvarsitoni,
Qayu kishvarsiton, xusrav nishoni.
Dema xusravnishonkim, qahramoni
Erur gar chin desang sohibqironi.

N. Husayn Boyqaro “Risola”si haqida o‘zining “M.L.” asarida to‘xtalib o‘tgan va shunday yozgan: *“O‘zlarining xurshedfayz tab’laridin zuhur qilg‘on risolaki, o‘z gavharrez qalamlaridin nigorish topibdur va o‘z kamohiyya holotlari kayfiyatida guzorish surati tutubdur...”.* N. “Ri-

sola”da o‘z ijodiga berilgan yuksak bahoni faxr va qoniqish b-n qayd etadi. Husayn Boyqaro uni nazmning barcha turida bemisl shoir sifatida ta’riflagani, she’r mulkining sohibqironi, deb ataganini tasdiqlovchi so‘zlarni bitadi: *“Bu bayri bandalarini nazm tariqining barcha nav’ida ta’riflar bitib, sohibqironliq laqabi bila sarafroz qilibdurlar va bemisl va indozliq vasfi bila mumtoz etibdurlar”.*

Bu davrda o‘zbek tilida nasriy asarlar kam yaratilgani inobatga olinsa, mazkur “Risola”-ning adabiyotimiz tarixidagi o‘ziga xos o‘rni bor ekanligi shubhasizdir.

Ad.: *Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Орасли Ҳ. Ҳусайн Бойқаро рисоласи ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1968. 3-сон; Абдуғафуров А. “Рисолаи Ҳусайн Бойқаро”нинг яратилиш тарихидан // Ўзбек тили ва адабиёти, 1972. 2-сон; Ўзбек адабиёти тарихи. II том. – Т., 1978; Ҳусайн Бойқаро. Девон. Рисола. – Т., 1968.*

S.G‘.

HUSAYN VOIZ KOSHIFIY (to‘liq ismi: Kamoliddin Husayn Voiz ibni Ali (1420, Sabzavor – 1505, Hirot) – mutafakkir, ilohiyotchi olim, adib, o‘z davrida voizlik san’atining yirik namoyandasi. Sabzavorning Bayhaq degan joyida tug‘ilgan. Boshlang‘ich ma’lumotni ona yurtida olib, Mashhadda ilmini takomilga yetkazgan. 1455–1468-yy.da Nishopur va Mashhadda, keyinchalik, Hirotda (1468-y.dan) yashagan. U diniy ilmlar, tarix, adabiyot, axloq, hisob, nujum, kimyo fanlarida tengsiz bo‘lgan. Bayhaq, Sabzavor, Mashhad va Hirotda voizlik qilib, shuhrat qozongan. Abdurahmon Jomiy va N.ning yaqinlaridan bo‘lgan. Turli mavzularda 40 ga yaqin asar yozgan. “Tafsiri Husayniy” (1492–1494), “Maxzan ul-insho” (“Insho xazinasi”, 1492), “Badoye’ ul-afkor fi sanoye’ il-ash’or” (“She’r san’atlari haqida ajoyib fikrlar”, 1489), “Hotamnoma” (1480), “Futuvvatnoma”, “Axloqi Muhsiniy”, “Anvori Suhayliy” (“Suhayliy nurlari”) asarlari mashhur. Jaloliddin Rumiyning “Masnaviyi ma’naviy” asariga sharh yozib, ko‘plab tasavvufiy masalalarni sharhlagan. “Zod ul-musofirin” (“Tariqat yo‘lchilarining yo‘l oziqlari”) masnaviysida ham qator so‘fiyona timsol-tushunchalarga izoh bergan. Asarlarini fors tilida yozgan. N. b-n ijodiy hamkorlik qilib, unga bag‘ishlab “Mavohibi oliya” (“Oliy tuhfalar”) asarini yozgan. N.ning “M.N.” tazkirasida Koshifiy haqida quyidagilarni o‘qiymiz: “Mavlono Husayn Voiz – “Koshifiy” taxallus qilur. Sabzavorliqdur. Yigirma yilga yaqin borkim, shahrdadur va Mavlono zufunun va rangin va purkor voqe’a bo‘lubtur. Oz fan bo‘lg‘aykim, dahli bo‘lmag‘ay. Xususan, va’z, insho va nujumki, aning haqqidur va har qaysisida mutayyin va mashhur ishlari bor”.

H.V.K. to‘g‘risida tarixchi Xondamir esa shunday yozadi: “Mavlono ma’qul va maxsus ilmlarning barchasidan to‘la naf’langan va bahramanddir. Hozirgi vaqtda Xuroson diyorida ul janobga teng keladigan kishi topilmaydi. Uning balog‘atoyotlik hamda fasohat sifatlik kitoblari ko‘p va behisob bo‘lib, ularning ko‘pi oliymaqom amir Alisherning atoqli nomi b-n ziynatlangan. Amir Alisherning inoyat va iltifoti ul janobning ... sahifasiga hammavaqt tushib turadi”.

H.V.K. she’riyatda ham katta mahoratga ega shoirlardan edi. Uning yozgan asarlari o‘ttiz jilddan iborat kitobdan joy olgan.

H.V.K. hijriy-qamariy 910 (milodiy 1504/1505)-y.i Hirotda vafot etgan.

H.V.K. nomi va asarlari xalqimiz orasida ham mashhur bo‘lib, kitoblari va qo‘lyozmalari ko‘plab nusxalarda ko‘chirib tarqatilgan. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida 45 nomdagi asarining 197 qo‘lyozma va 75 ta toshbosma nusxasi mavjudligi buning yorqin dalilidir. “Futuvvatnomayi Sultoniy (yoxud javonmardlik tariqati)” asari taniqli olim N.Komilov tomonidan o‘zbekchaga o‘girilib, nashr etilgan. Adabiyotshunos olim E.Ochilov ruboiylaridan namunalar tarjima qilgan.

Mulk adl nuri bilan munavvar bo‘lgay,
Adl epkinidan jahon muattar bo‘lgay.
Darvesh dili orzusini ro‘yobga chiqar,
O‘zingni-da maqsading muyassar bo‘lgay.

Hamsuhbat agar latif-u komil bo‘lgay,
Jon rohati, zavq-u huzuri dil bo‘lgay.
Har kimki agar g‘ofil-u nodon bo‘lsa,
Har so‘zi uning zahri qotil bo‘lgay.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Хондамир. “Хулосат ул-ахбор”дан // Навоий замондошлари хотирасида. Форс тилидан Б.Аҳмедов таржимаси. – Т.,1985; Ҳусайн Воиз Кошифий. Ахлоқи Муҳсиний. – Т., 2010; Ҳусайн Воиз Кошифий. Футувватномаи Султоний. Ахлоқи Мўҳсиний. Рисолаи Ҳотамия. – Душанбе, 1991; Ҳусайн Воиз Кошифий. Футувватномаи Султоний ёхуд жавонмардлик тариқати. – Т., 1994; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Ж. 2. – Душанбе, 1989; ЎзМЭ. 5-жилд. – Т., 2003.*

E.O., B.R.

HUSAYN UDIY (taxallusi; to‘liq ismi: Ustod Husayn Rumiy Udiy) (XV asr o‘rtalari – Balx – XVI asr boshlari) – musiqashunos, bastakor, hofiz, sozanda. Hirot, Buxoro va Samarqandga borib, ilm-u hunar o‘rgangan. U aksar cholg‘u asboblarini chalishda usta bo‘lgan, lekin ud chalishda zamonasining yagonasi edi. O‘zining ixtirolari b-n udni ancha takomillashtirgan. Xondamir “Xulosat ul-axbor”da ma’lumot berishicha, “Ustod Husayn bolaligidan to yigitligi boshlarigacha sulton hazratlarining yaqin do‘sti amir Alisher ostonasida bo‘ldi va ul hazratning ko‘rsatmasiga binoan ud chalish b-n mashg‘ul bo‘ldi va qisqa vaqt ichida bu fanda to‘la mahorat hosil qildi. Hozir udni chaladi, ovozi ud ovoziga nihoyatda mos tushadi, ustodlik ishlari va naqsh-u amalni yod biladi...”

O‘n ikki maqom u-n asarlar ijod qilgan. “Chanbari”, “Muxammas”, “Far’i”, “Chandari Bolo” zarblari asosida “Peshravi Ud”, “Savti Husayniy”, “Amali Xafifi Udiy”, “Naqshi Husayniy” kabi maqomlar yaratgan.

Boburning yozishicha: “Udni mazaliq cholib, mazaliq nimalar aytur edi. Udning torlarini yakka qilib bu cholibtur. Aybi bu ediki, bisyor noz bila cholur edi. Shayboniyxon bir navbat soz buyurur, takalluf qilib, ham yomon chalur, ham o‘z sozini kelturmay, yaramas soz keltirur. Shayboniyxon fahmlar, buyururkim, suhbatda-o‘q gardanig‘a urarlar. Shayboniyxonning olamdak bir yaxshi ishikim bor budur. Filvoqe’ xo‘b bordur. Ushmundoq nozuk mardaklarg‘a mundin ko‘prak sazo kerak”.

Ad.: *Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 2002; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 3. – Душанбе, 2004.*

E.O.

HUSAYNZODA Sharifjon (1907, Konibodom – 1988, Dushanbe) – tojik adabiyotshunosi, prof. (1966). Tojikistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi (1960). Rudakiy nomidagi Tojikiston davlat mukofoti sohibi (1983). Tojikiston Adiblar ittifoqi a’zosi (1947). Konibodomda bolalar uyida tarbiyalangan. Qo‘qon muallimlarni tayyorlash bilim yurtida o‘qigan (1920–1923). Boku Dorilmualliminida tahsil olgan (1923–1925). Mehnat faoliyatini o‘qituvchilikdan boshlab, 1926–1929-yy.da Konibodom shahri maktablarida dastlab internat mudiri, direktori, 2-darajali o‘rta maktab o‘qituvchisi bo‘lib ishlagan. 1929–1931-yy.da O‘rta Osiyo davlat universiteti (SAGU)ning Sharqshunoslik fakultetida tahsil olib, so‘ng shu o‘quv dargohining Eron filologiyasi kafedrasida o‘qituvchilik qilgan. 1932-y.da Dushanbega borib, Tojikiston Pedagogika akademiyasida bir yil dars bergan. 1933-y.da yana Toshkentga qaytib, 1935-y.gacha O‘zbekistonda Til va adabiyot ilmiy-tadqiqot instituti aspiranturasida o‘qigan. 1935–1940-yy. da Toshkent shahridagi 2 yillik tojik muallimlari tayyorlash institutida dars bergan va bir vaqtning o‘zida O‘zR FAda ishlagan. 1940-y.da Dushanbega qaytib, 1943-y.gacha Pedagogika institutida katta o‘qituvchi, tojik tili va adabiyoti kafedrasi mudiri, 1943–1947-yy.da Tojikiston FA Tarix, til,

adabiyot va arxeologiya instituti direktori, 1948–1962-yy.da Rudakiy nomidagi Til va adabiyot instituti adabiyot bo‘limi mudiri, 1962–1985-yy. da Tojikiston DU Tojik mumtoz adabiyoti kafedrasi mudiri lavozimlarida faoliyat ko‘rsatgan. U adabiyot tarixi va nazariyasini chuqur bilib, bilimdon olim va donishmand ustoz sifatida katta hurmat-e’tiborga ega edi.

H.Sh. o‘zbek mumtoz adabiyoti namunalarini, xususan, N. asarlarini nashrga tayyorlash va tadqiq etish ishiga o‘ziga xos hissa qo‘shgan. Amin Umariy b-n hamkorlikda N. tavalludining 500 yilligi munosabati b-n “L.M.”dostonining nasriy bayonini yaratgan (1941, 1949, 1971). U she’riy matni b-n birgalikda nashr qilingan (bir sahifasi nazm, bir sahifasi nasr). Bunda dostonning har bir bayti uning aniq ma’nosi va ibora-obrazlari b-n nasrga ko‘chirilgan. “F.Sh.” dostoni haqida mufassal maqola yozgan (1941). “Navoiy va Jomiy” nomli maqolasida o‘zbek va tojik xalqining bu ikki ulug‘ farzandi o‘rtasidagi do‘stlik va hamkorlik munosabatlarini yoritgan (1941). “F.Sh.” dostonini so‘zboshi va izohlar b-n Dushanbeda o‘zbek tilida chop ettirgan (1948).

Ad.: *Муқимий тўғрисида // Қизил Ўзбекистон, 1938, 4 июнь; Алишер Навоий. Лайлӣ ва Мажнун. – Т., 1941; Достони “Фарҳод ва Ширин”-и Навоӣ // “Шарқи Сурх”, 1948. № 5; Ҳусейнзода Ш. (Библиография). – Душанбе, 1977; Мақсудов Б. Феҳристи нусхаҳои хаттии Маркази фарҳангии ба номи профессор Ш.Ҳусейнзода. – Душанбе, 2007; Комилов Н. Хизр чашмаси. – Т., 2005; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 3. – Душанбе, 2004.*

Sh.R.

HUSANOV Nishonboy Abdusattorovich (1954) – f.f. d-ri, prof., olim, til tarixi, tarixiy leksikologiya va leksikografiya, qadimgi nomshunoslik masalalari bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan. U 1982-y.da “Shayx Sulaymon Buxoriyning “Lug‘ati chig‘atoyi va turki usmoniy” asarining leksikografik tadqiqi” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Tadqiqotda XIV–XIX asrlarda yashab ijod etgan shoirlarning asarlari, xususan, N. asarlari asosida tuzilgan “Lug‘ati chig‘atoyi va turki usmoniy”ning xususiyatlari o‘rganilgan: lug‘atda N.ning 14 ta asaridan manba sifatida foydalanilgan va 500 ga yaqin so‘zga ulardan manba sifatida misollar keltirilgan, lug‘atdagi so‘zlar va misollarni N.ning ilmiy tanqidiy hamda chop etilgan asarlari b-n qiyosiy tahlil etgan. “Lug‘ati chig‘atoyi va turki usmoniy”ning shoir asarlarini o‘rganishda muhim leksikografik manba ekanligi ochib berilgan.

H.N.A. “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”ga materialllar to‘plashda faol ishtirok etgan hamda ulug‘ ijodkor asarlaridagi kishi ismlari, joy nomlari, asar nomlarini to‘plagan va izohlagan (4-tom. – Toshkent; Fan, 1985.).

Muallif N. asarlaridagi antroponimlarning leksik-semantik xususiyatlarini tadqiq etgan. Ulug‘ shoir asarlarida qayd etilgan mingdan ortiq antroponimlarning – payg‘ambarlar, xalifalar, avliyolar, farishtalar, hukmdorlar, ijodkorlar nomlari, an’anaviy va to‘qima ismlarning leksik-semantik va tarixiy-etimologik xususiyatlari ochib berilgan. U N. asarlaridagi antroponimlarning uslubiy, ya’ni ma’no xususiyatlarini aniq misollarda yoritgan: *Yoqut, Layli, Majnun, bahrom, Bahman, Farruh, Siyovush, Yoqub, Hotam, Navro‘z, Xisrav, Xizir, Farhod, Jamshid* kabi ismlar nominativ vazifanigina bajarib qolmay, ko‘plab ma’nolarni anglatishi tadqiq etilgan. M-n: Xizr so‘zi shoir asarlarida “*hamrohlik qiluvchi avliyo”, “yo‘l ko‘rsatuvchi”, “yashil”, “daraxt”, “nasha”, “ma’shuqa”, “ma’shuqa labidagi tuk”, “mangu”, “tirik”, “ustoz*” kabi 10 dan ortiq ma’noni anglatib kelishi ko‘rsatilgan.

Tadqiqotda shoir asarlaridagi ismlar vazifasi hamda badiiy san’atlarni hosil qilishdagi o‘rniga ko‘ra 8 guruhga ajratib tahlil qilingan: istiora, tashxis, intoq, tashbeh, talmeh, laff va nashr, tanosib, husni ta’lil, irsoli masal, tardi aks, tarse’, ta’did, qaytariq, mubolag‘a, ruju, nido, tajnis, lutf,

ittifoq, ishtiqoq, qalb, tazod, muammo, istixroj.

Istixroj san'ati Odam va Ahmad (Muhammad) ismlarida yoritilgan:

O'zga dalil istasa tab'i saqim,
Basdurur Odamda "alif" "dolu" "mim",
Barchasi Ahmadda topib izzu shon,
O'g'lida uch harf atodin nishon.

Ad.: *Дадабоев Х., Носиров И., Ҳусанов Н. Проблемы лексики староузбекского языка. – Т., 1990; Ҳусанов Н. XIV–XIX аср ўзбек адабий ёдномаларидаги антропонимларининг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари. 1-китоб. – Т., 1996; 2-китоб. – Т., 1997.*

S.O'.

"HUFFOZ" (qori, muazzin, hofiz) – "M.Q." asarining "Avvalg'i qism"i 21-faslidan o'rin olgan bo'lim "Huffoz zikrida" deb nomlanib, qori, muazzin, hofizlarga bag'ishlangan. Huffoz – hofizlar, qorilar ma'nosida bo'lib, mazkur toifaning tabiati haqida bayon etganlari N.ning ijtimoiy-siyosiy qarashlarini ham yaqqol ko'rsatadi. Chunonchi, hofiz yaxshi maxraj (qiroat) b-n tilovat qilsa, tinglovchilarning ruhiga osoyish va joniga halovat yetadi, deydi va ularning tabiatidagi ba'zi hollardan so'z yuritadi: "Agar husni savt bularg'a yordur eshitkuvchi sohibhol bo'lsa, ishi dushvordur. Agar bad lahja bo'lsa va bad ado surma aning g'izosi qilsin Xudo..."

Yo Rabki, hech bazmda ul nag'ma qilmag'ay,
Og'zi g'izodin o'zga nimaga ochilmag'ay.

Mazkur baytda N. yuqorida bayon qilganlariga keskin munosabatini ham bildiradiki, bu tasvirlar "M.Q."ning umumiy mazmun-mohiyatida namoyon bo'ladigan tanqidiy ruhning yetakchiligini yana bir bor dalillaydi. Xullas, "Huffoz zikrida" bo'limi shoirning adiblik mahoratini namoyon etadi: ya'ni bular muxtasar matnga ko'p ma'no joylash, so'z yuritilayotgan kasb egalariga xos bir nechtagina belgilarda o'quvchi tasavvurida real qiyofani paydo qilishida ko'rinadi. N.ning o'z davridagi kasb egalarining ahvol-ruhiyasini bexato bilishi, boz ustiga, muayyan faoliyat b-n shug'ullanuvchilarga aslan qo'yilgan talablar mohiyatini anglatib, ularning to'g'ri yoki noto'g'ri fe'l-atvorlaridan ibrat olishga chorlashi diqqatga molikdir.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. Ўгирувчи: Баҳодир Қобул. – Т., 2021.*

S.O'.

HUSN ZAKOTI − husn solig'i, go'zallikdan talab qilinadigan ulush. Sharq mumtoz she'riyatida ko'p uchraydigan an'anaviy obrazli iboralardan. Bu islom dinidagi zakot tushunchasi b-n bog'liq. Zakot − islom shariatiga muvofiq boy, o'ziga to'q musulmonlarning mol-mulkidan faqir va qashshoqlar foydasiga har yili umumiy daromadning qirqdan bir ulushi miqdorida olinadigan soliq. Ya'ni mol-mulki ko'p badavlat kishi bechoralar foydasiga zakot berganidek, husn davlati sohibasi bo'lgan go'zal mahbuba ham tengsiz husni davlatidan oshiqlarini bahramand etishi − ularga hech bo'lmasa yuzini ko'rsatish kerakligini o'tmish shoirlari yetakchi mavzulardan biri darajasiga ko'tarib, badiiy timsolga aylantirganlar. Bu timsol N. ijodida ham uchraydi. M-n, u yozadi:

Ey Navoiy, gar berur husni zakotin, yo'q kishi
Xastaye, zore, g'aribi benavo andoqki men.

Maz.: Ey Navoiy, agarda yor husni zakotini bermoqchi bo'lsa, unga men xasta-yu zor-u g'aribi benavodek munosib kishi yo'q.

Quyidagi baytida esa ma'shuqaga murojaat qilib: "Xudovandi karim marhamatini darig' tutmay seni quyosh kabi yuksaltiribdi. Shunday ekan, quyosh kabi husningning bir zarrasini bu faqir foydasiga zakot sifatida bersang-chi?! – deydi. Boyning muruvvati tufayli kambag'alning turmushi o'nglanib ketgani kabi ushbu ehsoning sababidan ko'nglim murodi hosil bo'lar edi:

Orazing mehrida og'zingdur gadolig' qilg'anim,
Haq seni xurshid qilmish, zarrae bergil zakot.

La'l zakoti tushunchasi ham mavjud:

La’ling zakoti may tutub,
tirguzmasang, ey mug‘bacha,
Dayr ichra men dilxastani ranju
xumor o‘lturgusi.

Ad.: *Очилов Э. Бир ҳовуч дур. – Т., 2011; Ислом энциклопедияси. – Т., 2004; Баҳори Ажам. Жилд 2. Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.).*

E.O.

HUSNI MATLA’ (ar. – matla’ning husni, ya’ni chiroyli boshlash) – g‘azal va qasidani go‘zal boshlashdan iborat mushtarak san’at. Ilmi bade’ga oid adabiyotlarda u husni ibtido deb ham yuritiladi. Matla’ she’rga o‘ziga xos kirish, uning ochqichi hisoblanganidan shoirlar matla’ga jiddiy e’tibor berib, unga katta mas’uliyat b-n yondashganlar: shaklan go‘zal, mazmunan teran, badiiy yetuk chiqishiga harakat qilganlar. “Chiroyli so‘z va iboralar chuqur ma’noning yorqin, ta’sirli shaklda namoyon bo‘lishini ta’minlaydi. Natijada birinchi bayt (matla’) o‘quvchi e’tiborini qozonib, unda keyingi baytlarni o‘qishga ishtiyoq uyg‘onadi” (Y.Is’hoqov). Atoulloh Husayniy ta’biri b-n aytganda, shoirlar “kalom boshining xo‘b-u marg‘ub bo‘lmag‘ig‘a to‘luq sa’y qilg‘aylar, zerokim, ul some’ qulog‘ig‘a birinchi yetkay, demak, yaxshi bo‘lsa, aning davomin eshitmakka mayl bo‘lur, yo‘qsa, tab’i ani rad etar va keyin necha yaxshi bo‘lmasun, eshitkuchining tab’ida boshda hosil bo‘lg‘an tanaffurni isloh qilib bo‘lmas”. Ayni jihatdan Rashididdin Vatvotning “Hadoyiq us-sehr” asarida keltirilgan bir rivoyat diqqatga sazovor:

Bir shoir Kirmon hokimi huzuriga borib, unga bag‘ishlangan qasidasini o‘qib bermoqchi bo‘libdi. Lekin matla’sini o‘qishi b-n uning go‘zalligidan hayratga tushgan hokim qarsak chalib, uni to‘xtatibdi:

− Bo‘ldi! Qasidaning qolganini o‘qib o‘tirma.

Keyin nadimiga ming dinor keltirishni buyuribdi. Pulni shoirga berar ekan, shunday debdi:

− Agar qasidaning barcha baytlari matla’sidek bo‘lsa, har baytning bahosi ming dinordan bo‘ladi. Mening xazinamda esa buncha oltin yo‘q.

Kitobda, shuningdek, bema’ni matla’si u-n ellik tayoq yeb, ko‘chaga haydalgan boshqa bir shoir haqidagi hikoyat ham keltirilgan.

Mana, sizga bir matla’ning kuchi!

Ma’lum bo‘ladiki, “she’rning boshlanishiyoq o‘quvchini hayratga solishi, zavqlantirishi lozim. Shuning u-n ham husni matla’ she’r boshlanishida o‘quvchi ta’bini xira qiladigan, kayfiyatiga salbiy ta’sir o‘tkazadigan so‘zlar ishlatilmasligini, fikrni ortiqcha dabdabali, jimjimador yoki sayoz va mantiqsiz so‘zlar b-n ifodalamaslikni, ya’ni lafz va ma’ni orasida uyg‘un muvofiqlik bo‘lishini talab qiladi. Mumtoz shoirlarimiz she’rni husni matla’ talablariga mos tarzda yaratishga jiddiy e’tibor qaratganlar, zero, matla’ g‘azalning ilk taqdimoti ekani, asarga munosabat ilk misralar qoldirgan taassurot asosiga qurishini yaxshi bilganlar” (“Adabiyotshunoslik lug‘ati”).

N. matla’ning go‘zal va betakror, teran va yetuk, jozibador va jarangdor chiqishiga hamisha jiddiy e’tibor bergan.

Orazin yopqach, ko‘zumdin sochilur har lahza yosh,
O‘ylakim, paydo bo‘lur yulduz,
nihon bo‘lg‘ach quyosh,

degan hali o‘n ikki yoshida bitgan g‘azali matla’sining o‘sha davrning malik ul-kalomi Lutfiy tahsiniga sazovor bo‘lgani va ustod shoir o‘zining o‘n-o‘n ikki ming turkiy va forsiy baytini shu birgina g‘azalga almashishga rozi ekani va bu ishning amalga oshishini zo‘r muvaffaqiyat deb bilishini izhor etganining o‘zi N.ning she’riyatdagi ilk qadamlaridanoq matla’ga katta mas’uliyat b-n yondashgani va uning betakror namunalarini ijod qilganini ko‘rsatadi. Uning g‘azal va qasidalarinigina emas, hatto dostonlarining ilk baytlari ham puxta ishlanganidan o‘quvchini qiziqtirib, hayratlantirib, ortidan ergashtirib ketadi. “X.M.” devonlar turkumidagi 2600 g‘azalidan barchasining matla’si biri-biridan chiroyli, lekin ko‘pchiligi bu san’atning bebaho durdonalari darajasida. Ularning kitobdan kitobga, tildan tilga ko‘chib yurishi bejiz emas. Chunki ba’zilari so‘z san’atining beqiyos namunalari bo‘lsa, ba’zilar teran hikmatning ayni o‘zidir. M-n:

Dahr elidin naf’ agar yo‘qtur, zarar ham bo‘lmasa,
Marham ar yo‘qtur, ko‘ngulga nishtar ham bo‘lmasa.

Maz.: Koshki olam elidan foyda yetmaganiga yarasha zarar ham yetmasa. Dardingga malham qo‘yishmasa, ko‘nglingga xanjar ham urishmasa.

Oddiygina bo‘lib ko‘ringan bu misralarda inson va jamiyat munosabati b-n bog‘liq muhim nuqtalardan biri mahorat b-n qalamga olingan va go‘zal badiiy talqin qilingan. Bu baytning barcha zamonlar u-n barhayot va barcha toifalar u-n sevimli bo‘lib qolayotganining asl sababi ham shunda.

Yoki:

Dahr sudidin tama’ uzkim, ziyone besh emas,
Umrni tutqil g‘animatkim, zamone besh emas.

Maz.: Bu dunyodan foyda qilishdan tama uzkim, uning foydasi ziyonidan ko‘p emas. Umrni g‘animat tutki, u bir nafasdan ortiq emas.

Dunyodan manfaat ko‘zlagan zarar ko‘rishiyu umrini g‘animat bilmagan armonda qolishini uqtirish b-n shoir olamning mohiyatini anglash hamda hayotning mazmunini tushunishga da’vat etayotgani sir emas. Chuqur bilim, keng dunyoqarash, katta hayotiy tajriba mahsuli bo‘lgan va tengsiz mahorat b-n nazm rishtasiga tizilgan bunday teran hayotiy haqiqatlarning yuksak badiiy talqinlari tafakkur durdonalari sifatida asrlarni bo‘ylab yashayveradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Шамси Қайси Розий. Ал-мўъжам. – Душанбе, 1991; Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға // “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2002, № 6; Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадоеъ ус-санойиъ (А.Рустамов тарж.) – Т., 1981; Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т., 2006; Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Т., 2001; Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2010; Зеҳний Т. Санъати сухан. – Душанбе, 1967.*

E.O.

HUSNI MAQTA’ (ar. – maqta’ning husni, ya’ni chiroyli yakunlash) – she’rni go‘zal bir tarzda yakunlash b-n bog‘liq mushtarak san’at. U husni intiho, husni xotima, baroati maqta’ deb ham yuritiladi. Ijod tabiatini yaxshi bilgan, o‘quvchi talabini chuqur his qilgan shoirlar o‘z asarlarini qanday yaxshi boshlagan bo‘lsalar, shunday yaxshi tugatishga ham intilganlar: bunda yoritilgan mavzuga o‘ziga xos yakun yasaganlar; asarning nihoyasiga yetganiga ishora etganlar; yo‘l qo‘yilgan qusr-u xatolar u-n uzr-xohlik qilganlar, ezgu niyatlarini izhor aylab, minnatdorchilik bildirganlar, goh o‘quvchini duo qilib, goh o‘quvchidan duo so‘raganlar, bitiklarining barchaga manzur bo‘lishi va yashab qolishidan umidvor bo‘lganlar va h.k. Bu haqda mumtoz poetika bilimdonlaridan Atoulloh Husayniy shunday yozadi: “Ul andog‘durkim, kalomni lafz-u ma’no jihattin xo‘b-u marg‘ub bir nima bila tugatarlar, zeroki, eshitkuchining qulog‘iga yetgan ul oxirg‘i nima yaxshi bo‘lsa, aning latofat-u lazzati aning xotirinda qolur. Agar olding‘i baytlarda qusur voqe’ bo‘lsa ham, ul taomlarning oxirinda yeyilgan laziz-u shirin taomdek bo‘lur. Agar mazkur bo‘lg‘andek bo‘lmasa, ahvol aning aksincha bo‘lur va olding‘i baytlardin hosil bo‘lg‘an har lazzat-u halovat tabiat uchun bemaza-yu yoqimsiz nimaga aylanur. Yaxshisi ulkim, kalomning tugaganiga ishora bo‘lgay va eshitkuchi andin so‘ng yana bir nimani kutmagay”.

N. ijodida H.M.ning barcha ko‘rinishlarini uchratish mumkin. U she’rni boshlashni qanday qoyil qilgan bo‘lsa, yakunlashni ham shunday qotirgan. Shoirning g‘azal va qasidalari yoritilgan mavzuni avj nuqtada yakunlaganligi, o‘ziga xos xulosaviy fikr bo‘lib jaranglaganligi, ko‘pincha hikmat darajasiga ko‘tarilgan o‘y-mushohadalarni o‘z ichiga olganligi b-n ajralib turadi. M-n, ishqiy g‘azallaridan birida ma’shuqaning jabr-u sitamlaridan oshiq chekkan ranj-u azoblarni tasvirlab kelar ekan, ishq dardi shunaqa bo‘ladigan bo‘lsa, N. mast-u yalang‘och bo‘lib, ko‘kragiga tosh urgancha fig‘on tortib, bu dunyoni tark etsa, ajab emas, deb mantiqiy xulosa chiqaradi:

Dard agar budir, Navoiy chiqsa olamdin, ne tong,
Mast-u uryon ko‘kragiga tosh urub, tortib fig‘on.

Dunyo tanqidiga bag‘ishlangan bir g‘azalini esa o‘tkinchi, nomunosib bo‘lgan bu makonni tark etgan yaxshi, zero, qarg‘a-yu quzg‘un ma’vo tutgan joydan bulbul qochgani maqsadga muvofiq, degan juda o‘rinli bayt b-n xotimalaydi:

Ey Navoiy, dahr bog‘idin qutulmoq istakim,
Bulbul uchqan yaxshiroq zog‘u zag‘an ma’vosidin.

Dostonlari esa Allohga munojot qilib, yozganlarining xato-yu qusurlarini isloh qilib, o‘qiganlarga manzur etishi, mutolaa qilib, maqsadi hosil bo‘lganlar esa muallifni duo qilishini so‘rab yozgan iltijonomasi b-n yakunlanadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Шайх Аҳмад ибн Аҳмад Тарозий. Фунун ул-балога // “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2002, № 6; Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадоеъ ус-санойиъ (А.Рустамов тарж.). – Т., 1981; Зеҳний Т. Санъати сухан. – Душанбе, 1967; Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2010.*

E.O.

HUSNI TALAB (ar. − maqsadni chiroyli izhor qilish) − muallifning o‘z talabini nozik lutf b-n, yoqimli so‘zlar vositasida bayon qilishiga asoslangan badiiy san’at. U husni matlab, baroati talab, adabi talab, husni suol nomlari b-n ham yuritiladi. Bunda shoir shoh yoki amaldordan, valine’mati yoki homiysidan, ko‘pincha ma’shuqadan tilagini ochiq aytmay, ishora yo‘li b-n yoki umumiy yo‘sinda bildiradi. Rashididdin Vatvot ta’biri b-n aytganda: “bu san’at andog‘-durkim, shoir bir baytta mamduhtin bir nima tilagay ammo latif vajh-u shirin uslub bila; maoni-yu alfozni pokiza qilmoqqa sa’y etib ulug‘lamog‘u ehtirom shartlarin rioya qilg‘ay...”. Ya’ni o‘z ehtiyoj-u istagini chiroyli sabab b-n hurmat ko‘rsatgan holda nafis so‘zlar vositasida ifodalash. Ahmad Taroziy buni chiroyli usulda iltimos qilish, deydi. Holbuki, ba’zi qalamkashlar kabi ochiqdan ochiq tama qilib ham, o‘zini yerga urib ham, xushomad b-n maqtab ham bu ishni amalga oshirish mumkin. Lekin bu homiylik qiluvchining ensasini qotirgani kabi, o‘quvchining ham hafsalasini pir qiladi. Tilagini pardali qilib, ishora b-n bildirmay so‘rash esa o‘ziga xos madaniyat va mahoratni taqozo etadi.

N. ijodida H.T.ning ham go‘zal va rang-barang namunalarini ko‘plab uchratamiz. M-n:

Navoiy, xurdai nazmingni andoq
aylading tahrir −
Ki, sochqay xurda boshing uzra
shohi xurdadon ko‘rgach.

Maz.: Ey Navoiy, she’rlaringni tahrir qilib, ma’nodan shunaqangi sayqal berdingki, nozikfahm shoh ularni ko‘rgach, boshingdan tilla sochsa, ne ajab!

Go‘yoki o‘z she’rlarining badiiy yuksakligidan iftixor qilib yozilgan ushbu faxriya bayti zimnida shohning o‘z ijodiga e’tibor qaratishi va munosib taqdirlashiga nozik ishora mavjud.

Yoki quyidagi baytida Jamshid taxti-yu Kayqubod tojining vorisi boshingda ekan, ey N., g‘am yeyishga hojat yo‘q, deyish b-n Husayn Boyqaro o‘z himoyati va marhamatini o‘zidan hech qachon darig‘ tutmasligiga umid bildiradi:

Ey Navoiy, g‘am yema boshingg‘a
bo‘lsun mustadom
Ulki, bordur vorisi taxti Jamu toji Qubod.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға // “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2002, №6; Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадоеъ ус-санойиъ (А.Рустамов тарж.). − Т., 1981; Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Т., 2001; Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2010.*

E.O.

HUSNI TA’LIL (ar. – chiroyli dalil keltirish) – she’riy san’atlar ichida eng murakkablaridan bo‘lib, shoirlar o‘z fikrlarini badiiy go‘zal shaklda ifodalash u-n unga murojaat qiladilar. Bunda keltirilgan dalil ifodalangan fikrning haqiqiy sababi bo‘lmay, shoirlar lutf yuzasidan uni vaj qilib ko‘rsatadilar. Jumladan, N.ning quyidagi baytida ma’shuqaning oshiq ahvolini so‘ramasligiga lablarining azbaroyi shirinligidan bir-biriga yopishib qolganligi sabab qilib ko‘rsatiladi:

Yor og‘iz ochmasqa dardim
so‘rg‘ali toptim sabab:
Ko‘p chuchukluktin yopushmishlar
magar ul ikki lab.

Albatta, bu haqiqat emas, balki “go‘zal yolg‘on”, lekin ushbu tashbeh o‘zining badiiy go‘zalligi, nozikligi, ohorliligi va ta’sirchanligi b-n o‘quvchini to‘lqinlantiradi, hayratga soladi. U shunday go‘zal yolg‘onlarni yaxshi ko‘radi, ana shunday lutflar, zarofatlardan zavq oladi, shoirning mahorati, topqirligidan hayratga tushadi.

Ilmi bade’ga oid asarlarning deyarli barchasida H.T. san’ati haqida ma’lumot berilib, zabardast so‘z san’atkorlari ijodidan unga go‘zal misollar keltirilgan. Bu san’atga berilgan ta’riflar bir-biriga yaqin va o‘xshash bo‘lib, shoir tomonida ilgari surilgan muayyan fikrning isboti u-n hayotiy bo‘lmasa-da, o‘quvchini ishontiradigan go‘zal badiiy dalil keltirish: bir fikrning inkori uchun undan-da yaxshiroq misol topish demakdir. O‘z-o‘zidan bu tashbeh yo istiora yo‘li b-n amalga oshiriladi hamda shoir salohiyati va mahoratining darajasini belgilaydi. Xullas, H.T.ni, “Badoyi’u-s-sanoyi’”da yozilishicha, “haqiqattin yiroq bir nimaning sifatin isbot qilmoqqa xos qilipturkim, anga munosib bir illatni (sababni) zarofat bila iddio qilgaylar, tokim eshitkuchi ani haqiqat deb tasavvur qilg‘ay...”

Atoulloh Husayniy H.T.ning to‘rt turini ajratib ko‘rsatadi. Birinchisi – keltirilgan sifat o‘sha narsada haqiqatan ham bo‘ladi, lekin bu uning ko‘rinib turgan sababi bo‘lmaydi, o‘shanga bir sabab ko‘rsatadilar. Ikkinchisi – voqeiy sifatning zikr etilgan ko‘rguzma sababidan o‘zga ko‘rinib turgan sababi bo‘ladi. Uchinchisi – o‘sha narsaning sifati haqiqatdan mavjud bo‘lmaydi, lekin hayotda bo‘lishi mumkin bo‘ladi. To‘rtinchisi – keltirilgan sifat haqiqatda ham bo‘lmaydi, hayotda ham bo‘lishi mumkin emas.

N.ning badiiyat durdonalari bo‘lmish asarlarida H.T.ning barcha ko‘rinishlarini ko‘plab uchratish mumkin. M-n: shoir yorning ortiq jabr-u jafo qilmay qo‘yganini uning ko‘nglida rahm-shafqat uyg‘ongani emas, balki o‘ziga ko‘rsatmagan jabr-u jafosi qolmagani b-n asoslar ekan, bu H.T.ning birinchi ko‘rinishiga misol bo‘la oladi:

Yorkim, qilmas jafovu javr, ermas rahmdin –
Kim, manga ko‘rguzmagan javru jafosi qolmamish.

Ma’shuqaning o‘z oshig‘iga jafo qilishdan qo‘l tortishi (aslida uni unutib qo‘yishi)ning sababi sifatida keltirilgan bu dalil garchi yolg‘on bo‘lsa-da, o‘zining zarofati, go‘zalligi, ta’bir joiz bo‘lsa, haqiqatga o‘xshab ketishi b-n o‘quvchida estetik zavq uyg‘otadi.

Mana bu bayt esa ikkinchi ko‘rinishga misol:

Kulbamning emas xishtlari darziki, ochmish
Holimg‘a fig‘on qilg‘ali og‘zin daru devor.

Kulbaning g‘ishtlari darz ketib, devor-u eshikning “og‘zi ochilib qolgan”i-ku hayotda uchraydigan hodisa, lekin ularning shoirning holiga fig‘on chekish u-n shunday qilgani – yolg‘on.

Qonga to‘lgan ko‘z ichidagi qorachiq o‘tga tashlangan isiriqqa o‘xshaydi, lekin N. tasvirlagan quyidagi hodisaning hayotda uchrashi mumkin emas:

Bu qizarg‘an ko‘z aro mardum emaskim, el ko‘zi
Tegmasun husnungga deb, o‘t solibmen sipand.

Quyoshning yor eshigini tavof etish u-n yer yuziga tushishi hayotda uchramaydi, bunga aql ham ishonmaydi:

Yuz eshiging tufrog‘ig‘a surta olg‘aymanmu deb,
Charx qasridin quyosh har kun tushar olam aro.

H.T., asosan, mubolag‘ali yuksak uslub u-n xos bo‘lib, uning asosida mubolag‘ali tashbeh yotadi. N.ning ba’zi g‘azallarida bir necha husni ta’lilni uchratish mumkin. M-n, “N.Sh.”dagi 161-raqamli 7 baytli g‘azalning besh baytida mubolag‘ali tashbeh mavjud.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъу-с-санойиъ (А.Рустамов тарж.). –Т., 1981; Исҳоқов Ё.*

Сўз санъати сўзлиги. – Т., 2006; Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Т., 2001.

E.O.

HUSHANG – qadimgi Eron peshdodiylar sulolasining shohlaridan bo‘lib, qirq yil hukmronlik qilgan. “Avesto”, “Dinkard”, “Bundaxishn” singari manbalarda u adolatli podsho sifatida zikr etilgan. H. devlarga qarshi kurashgan, yurt osoyishtaligi, xalq farovonligi-yu tinchligi u-n kurashgan hukmronlardandir. Uning zamonida otash kashf etiladi, temirchilik, duradgorlikni xalqqa o‘rgatadi, kanallar qazish, ariqlar chiqarishni joriy etadi; hayvonlarni uy sharoitida parvarishlashni rasm qildi; ot, tuya, ho‘kiz, eshak singari hayvonlardan dehqonchilikda foydalana boshlandi. H. zamonida turli hayvonlar terisi va mo‘ynasidan libos tikib kiyish odatga aylandi. Firdavsiy ham H. bunyodkorligini “Shohnoma”-sida alohida mehr b-n tasvirlagan.

N. ham bu hukmdorning barcha fazilatlarini e’tirof etib, unga quyidagicha ta’rif beradi: “Hushang xiradmand va odil va olim podshoh erdi va “Jovidoni xirad” otlig‘ kitobni amali hikmatida ul tasnif qildikim, Ma’mun xalifa vaziri Hasan Sahl andin biror nima topib, arab tiliga tarjima qilibdur. Va shayx Bu Ali Miskavayh “Odob ul-arab va al-furs” otlig‘ kitobida ani zikr qilurkim, aning mutolaasi musannifining fazl-u kamolig‘a dalildurur. Va ajam ani payg‘ambar debdur. Va dod va adl jihatidin ani peshdod dedilar. Va temirni toshdin ul chiqardi. Va Tabariy debdururkim, yig‘ochdin taxta ul kesib, uylarga eshik yasadi va aksar konlarni ul chiqardi va barsni va itni ul kiyik olg‘uvchi qildi va otqa egar ul yasadi va tevani yukka ul kiyurdi va otqa eshakni turg‘uzub, xachir xayolin ul qildi va arig‘lar qozib, suv solib, obodonliq ul qildi. Erga farsh ul soldi va tulku va os va toyin terisin ul kiyarga qobil qildi. Umri bobida ixtilof bor. Ammo podshohlig‘i qirq yil erdi. Va tajarrud va taqvo tariqi bila o‘tkardi. Doim tog‘larda ibodat qilur erdi. Tavorixda mundoq musbatdurkim, devlar ani sajdada topib, tosh bila boshin yanchib o‘lturdilar. Va Tahmuras devband o‘g‘li erdi, otasi holidin voqif bo‘lub, devlarni atosi qasosig‘a halok qildi. Dag‘i ul mavzuda shahr bino qilib, otin Balx qo‘ydi. Va Sus bila Bobil shahrini Hushang yasadi. Va ba’zi Kufani ham anga mansub qilibdurlar”

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

H.H.

HUQQA (ar.) – 1. Yog‘ochdan yasalgan quticha; javohirlar sandig‘i. Qimmatbaho taqinchoqlar solib qo‘yiladigan dumaloq quticha. 2. Meva solinadigan dastalik idish. 3. Majoziy: mahbubaning og‘zi: bunda yorning chiroyli og‘zi H.ga, oppoq tishlari durga tamsil etiladi. N. she’riyatida H. shoirning ijodiy maqsadini yuzaga chiqaruvchi o‘ziga xos obrazlardan biri sifatida yuqoridagi mazmunlarni ifodalaydi. M-n:

Aningdek tashnamen, ey mug‘bachakim,
qo‘sh tutar bo‘lsang,
Falakning huqqasin bo‘l ikki, to bo‘lsun iki jomim.

Yoki:

Yana bir huqqa bo‘lg‘ach durrig‘a durj,
Kechib ul toram ichra burj bar burj.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати, 4 жилдлик, 4-жилд. – Т., 1985; Фарҳанги забони тожики. Жилд 2. – М., 1969.*

E.O.

QISQARTMALAR RO‘YXATI

ar. – arabcha, arab tilida
a.s. – alayhissalom
akad. – akademik
“A.” – “Arba’in”
b-n. – bilan
“B.B.” – “Badoye ul-bidoya”
“B.V.” – “Badoye ul-vasat”
“D.F.” – “Devoni Foniy”
er. av. – eramizdan avvalgi
“F.A.” – “Fusuli arbaa”
“F.K.” – “Favoyid ul-kibar”
“F.Sh.” – “Farhod va Shirin”
f.f.n. – filologiya fanlari nomzodi
f.f. d-ri – filologiya fanlari doktori
f. – forscha, fors tilida
f-t. – fors-tojik
“H.A.” – “Hayrat ul-abror”
“H.S.H.A.” – “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”
“H.P.M.” – “Holoti Pahlovon Muhammad”
h. – hindcha, hind tilida
h.k. – hokazo
“I.D.” – “Ilk devon”
inv. – invertar
l. – lotincha
“L.M.” – “Layli va Majnun”
“L.T.” – “Lison ut-tayr”
m-n. – masalan
maz. – mazmuni
mil. av. – miloddan avvalgi
“M.N.” – “Majolis un-nafois”
“M.Q.” – “Mahbub ul-qulub”
“M.A.” – “Mezon ul-avzon”
“MAT” – Mukammal asarlar to‘plami
“M.L.” – “Muhokamat ul-lug‘atayn”
“M.” – “Munshaot”
“Munj.” – “Munojot”
mo‘g‘. – mo‘g‘ulcha
N. – Navoiy
N.xonlik – Navoiyxonlik
N.shunos. – Navoiyshunos
“N.N.” – “Navodir un-nihoya”
“N.Sh.” – “Navodir ush-shabob”
“N.J.” – “Nazm ul-javohir”
“N.M.” – “Nasoyim ul-muhabbat”
prof. – professor
q. – qozoqcha
q.s.a. – quddisa sirruhum aziz
q.t.s. – qaddasollohu taolo sirrahu
r.a. – roziyallohu anhu
r.t. – rahmatullohu taolo
“R.M.” – “Risolayi mufradot”
s.t. – subhanohu taolo
s.a.v. – sallollohu alayhi vasallam
“S.” – “Soqiynoma”
“S.S.” – “Sab’ai sayyor”
“S.I.” – “Saddi Ikandariy”
“S.M.” – “Siroj ul-muslimin”
“S.Z.” – “Sittayi zaruriya”
sm. – santimetr
Tarj. – tarjimasi
“T.A.” – “Tuhfat ul-afkor”
“T.A.H.” – “Tarixi anbiyo va hukamo”
“TAT” – Tanlangan asarlar to‘plami
“T.M.A.” – “Tarixi muluki ajam”
t. – turkiy
t.y. – tug‘ilgan yili
t.y.n. – tug‘ilgan yili noma’lum
t. va v.e.y.n. – tug‘ilgan va vafot etgan yili noma’lum
u-n. – uchun
“V.” – “Vaqfiya”
v.y.n. – vafot yili noma’lum
v.e.y.n. – vafot etgan yili noma’lum
y. – yunoncha, yunon tilida
y. – yil, yili, yilda, yilning
yy. – yillar, yillari, yillarda, yillarning
O‘zME – O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi
O‘zMU – O‘zbekiston Milliy Universiteti
O‘zR FA – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
“X.” – “Xamsa”
“X.M.” – “Xazoyin ul-maoniy”
“Xam.M.” – “Xamsat ul-mutahayyirin”
“G‘.S.” – “G‘aroyib us-ig‘ar”
ShI. – Sharqshunoslik instituti
ShQM. – Sharq qo‘lyozmalari markazi
“Ch.D.” – “Chor Devon”

№	“ALISHER NAVOIY ENSIKLOPEDIYASI” MUALLIFLAR RO‘YXATI		Qisqartmalar
1	Muhammad ABDULLAYEV	*filologiya f.n.*	*Muh.A.*
2	Abdusalom ABDUQODIROV	*filologiya f.d., prof.*	*Ab.A.*
3	Abdurashid ABDUG‘AFUROV	*filologiya f.d., prof.*	*A.A.*
4	Shoira AHMEDOVA	*filologiya f.d., prof.*	*Sh.A.*
5	Toshpo‘lat AHMEDOV	*filologiya f.n*	*T.A.*
6	Azizullah ARAL	*f.f.b.f.d. (PhD)*	*Az.A.*
7	Maqsud ASADOV	*filologiya f.d., prof.*	*M.A.*
8	Gulnora ASTANOVA	*filologiya f.d., dotsent*	*G.A.*
9	Dilmurod ASQAROV		*D.A.*
10	Hamida ASHUROVA		*H.A.*
11	Nazora BEKOVA	*filologiya f.d., prof.*	*Naz.B.*
12	Nasiba BOZOROVA	*filologiya f.n., dotsent*	*N.B.*
13	Olim DAVLATOV	*f.f.b.f.d. (PhD)., dotsent*	*O.D.*
14	Qodirjon ERGASHEV	*filologiya f.d.*	*Q.E.*
15	Iroda ERNAZAROVA	*f.f.b.f.d. (PhD)*	*I.E.*
16	Husniddin ESHONQULOV	*filologiya f.d., prof.*	*H.E.*
17	Baxtiyor FAYZULLOYEV	*filologiya f.n., dotsent*	*B.F.*
18	Obidaxon FAYZULLAYEVA	*filologiya f.d.*	*O.F.*
19	Munis HAKIMOV		*Mun.H.*
20	Muhammadjon HAKIMOV	*filologiya f.d., prof.*	*Muh.H.*
21	Ibrohim HAQQUL	*filologiya f.d., prof.*	*I.H.*
22	Mahmud HASANIY	*tarix f.d., prof.*	*M.H.*
23	Nodirxon HASANOV	*filologiya f.d., prof.*	*N.H.*
24	Shafoat HASANOVA	*filologiya f.d.*	*Sh.H.*
25	Abduqodir HAYITMETOV	*filologiya f.d., prof.*	*Ab.H.*
26	Anvar HOJIAHMEDOV	*filologiya f.d., prof.*	*An.H.*
27	Hamidjon HOMIDIY	*filologiya f.d., prof.*	*H.H.*
28	Nishonboy HUSANOV	*filologiya f.d., prof.*	*Nish.H.*
29	Muyassar IBROHIMOVA	*f.f.b.f.d. (PhD)*	*M.I.*
30	Yoqubjon IS’HOQOV	*filologiya f.n., prof.*	*Y.I.*

31	Rashid JUMAYEV	*f.f.b.f.d. (PhD)*	*R.J.*
32	Sofiya JUMAYEVA	*filologiya f.n., dotsent*	*S.J.*
33	Nusratulla JUMAXO‘JA	*filologiya f.d., prof.*	*Nus.J.*
34	Laylo JO‘RAYEVA	*san’atshunoslik f.b.f.d. (PhD)*	*L.J.*
35	Nasiba JO‘RAQULOVA		*N.J.*
36	Farida KARIMOVA	*filologiya f.d*	*F.K.*
37	Yulduz KARIMOVA	*filologiya f.n., dotsent*	*Y.K.*
38	Najmiddin KOMILOV	*filologiya f.d., prof*	*N.K.*
39	Iskandar MADG‘OZIYEV		*I.M.*
40	Natan MALLAYEV	*filologiya f.d., prof*	*N.M.*
41	Muzaffar MAMATQULOV	*filologiya f.d*	*Muz.M.*
42	Badriddin MAQSUDOV	*filologiya f.d., prof*	*Badr.M*
43	Mohigul MAVLONOVA		*M.M.*
44	Barno MIRZAYEVA	*f.f.b.f.d. (PhD)*	*B.M.*
45	Mahbuba MIRZAAHMEDOVA		*Mah.M.*
46	Badia MUHIDDINOVA	*filologiya f.d.*	*Bad.M.*
47	Abdumannon NAZAROV	*san’atshunoslik f.d., prof.*	*A.N.*
48	Shahnoza NORQULOVA	*f.f.b.f.d. (PhD)*	*Sh.N.*
49	Marvarid NURBAYEVA		*M.N.*
50	Ergash OCHILOV	*f.f.n., dotsent*	*E.O.*
51	Sarvinoz OTAQULOVA		*S.O.*
52	Zeboxon QOBILOVA	*filologiya f.d., prof*	*Z.Q.*
53	Turg‘un QODIROV		*T.Q.*
54	Karimboy QURAMBOYEV	*filologiya f.d., prof*	*K.Q.*
55	Elnura QURBONOVA	*f.f.b.f.d. (PhD)*	*E.Q*
56	Komiljon RAHIMOV	*tarix f.d.,prof.*	*K.R.*
57	Vahob RAHMONOV	*filologiya f.n., dotsent*	*V.R.*
58	Zulayho RAHMONOVA	*f.f.b.f.d. (PhD), dotsent*	*Z.R.*
59	Shahnoza RAHMONOVA		*Sh.R.*
60	Burobiya RAJABOVA	*filologiya f.n. dotsent*	*B.R.*
61	Sayfiddin RAFIDDINOV	*filologiya f.n., dotsent*	*S.R.*
62	Nodir RAMAZONOV	*f.f.b.f.d. (PhD)*	*N.R.*
63	Rohila RO‘ZMONOVA	*filologiya f.n., dotsent*	*R.R.*
64	Dilorom SALOHIY	*filologiya f.d., prof.*	*D.S.*
65	Gulnoz SATTOROVA	*filologiya f.n., dotsent*	*G.S.*

66	Qaldibek SEIDANOV		*Q.S.*
67	Hanifa SOLIXOVA	*filologiya f.n., dotsent*	*H.S.*
68	Shodiya TURDIYEVA		*Sh.T.*
69	Ozoda TOJIBOYEVA	*f.f.b.f.d. (PhD)*	*O.T.*
70	Olmos ULVIY (BINNATOVA)	*filologiya f.d., prof.*	*O.U.*
71	Ergash UMAROV	*filologiya f.d., prof.*	*E.U.*
72	Gulnoz XALLIYEVA	*filologiya f.d., prof.*	*G.X.*
73	Muslima XOLBOYEVA		*M.X.*
74	Sirdaryoxon O‘TANOVA	*filologiya f.n.dotsent*	*S.O‘.*
75	Suyima G‘ANIYEVA	*filologiya f.d., prof.*	*S.G‘.*
76	Dilshod G‘OYIPOV	*filologiya f.d., prof.*	*D.G‘.*
77	Maftuna SHOMURODOVA		*M.Sh.*
78	Nodir JO‘RAQO‘ZIYEV	*filologiya f.d., prof*	*Nod.J.*

РЕЗЮМЕ

Изучение жизни и творчества Алишера Навои, великого поэта-мыслителя, несравненного представителя истории человеческой цивилизации, зрелого государственного и общественного деятеля, продолжается и по сей день. Источник вдохновения поэта, тайны совершенства, духовная сила творчества, кроме того, его ни с чем не сравнимое место в развитии искусства поэтического слова чрезвычайно велико и уникально. Вот почему внимание к литературному наследию Алишера Навои не только в Узбекистане, но и среди тюркских народов, и во всем мире имеет особое значение, поскольку Навои призывает человечество к согласию, солидарности, миру и дружбе.

Изменения и свобода в социальной, политической, культурной и духовной жизни нашей страны после 2016 года нашли отражение в изучении наваиведения. Глава государства Ш.М. Мирзиёев с первых дней своей деятельности на посту Президента уделяет особое внимание вопросам исследования творчества Навои и призывал народ изучать его произведения с новой духовной потребностью и целью. В постановлении Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года №ПП-4865 «О широком праздновании 580-летия со дня рождения великого поэта и мыслителя Алишера Навои», также включен вопрос об издании четырёхтомной «Энциклопедии Алишера Навои». Данная энциклопедия создана для выполнения этой задачи и ознакомления широкой общественности с жизнью, творчеством, литературным и научным наследием великого поэта-мыслителя, а также достижениями наваиведения.

В энциклопедии, прежде всего, собрано большинство статей, относящихся ко второй половине XV века, то есть о ряде положительных событий и изменений в общественной, политической, духовной и литературной жизни Хорасана и Моваруннахра, конечно-же, уделяется внимание к анализу факторам, которые вызвавали этих перемен. Это позволяет понять жизненную силу Тимуридского Возрождения и внимательно изучать роль Алишера Навои в нем. В энциклопедию также вошли статьи о детстве великого поэта, его близких родственниках, учителях и подробностях его отношений с ними. В частности, исторические сведения и мнения, ка сающиеся семьи Навои, образа жизни в Мешхеде, Балхе, Самарканде, и друзей поэта, безусловно, не оставят читателей равнодушными.

Как государственный деятель, Алишер Навои проявил свои лидерские качества в политической деятельности, в частности, он руководил рядом строительных работ, таких как рытье рвов, строительство мостов, парков, медресе, мечетей, больниц, о которых говорится в очень интересных статьях. Из книги можно получить достаточно информации о тюркских народах, известных поэтах и чиновниках Герата, столицы Хорасана во времена правления Хусейна Бойкара.

Творчество Алишера Навои – особое явление не только в узбекском, но и в восточном классическом искусстве. Смысловой мир его произведений, масштаб темы, способ выражения поэта, мир образов, система жанров, художественные возможности тщательно и систематически освещаются в энциклопедических статьях. Известно, что Алишер Навои, как великий двуя-

зычный поэт, умело писал на двух языках – турецком и персидском. Читателей не оставят равнодушными мнения о наследии поэта на персидском языке, его общечеловеческом значении и изучении. В книге содержится множество статей о поэмах и героях «Хамсы» Алишера Навои, которые, как известно, занимают большое место в истории восточной литературы, а также можно познакомиться с важными взглядами ученых в этой сфере. Статьи, посвященные духовным ценностям, освещающим творчество великого поэта-мыслителя: религии, мистике, мистическому смыслу и интерпретациям, повысили научную ценность энциклопедии.

Опытные переводчики неоднократно переводили произведения Алишера Навои на разные языки мира; они изданы в виде книг в ряде стран. Информация об этих переведенных работах, а также достижения в мировых исследованиях наваиведения указывают на объём энциклопедии. Рукописные и литографические издания произведений Алишера Навои хранятся в различных библиотечных фондах мира. По ним также создано несколько каталогов. Одним из достижений книги является то, что она дает о них как можно больше информации. Несомненно, читателей интересует возникновение в области литературоведения важного направления под названием «наваиведение», этапы его развития, зрелые ученые, их беспрецедентный вклад в развитие науки. Статьи, написанные по направлениям «Навои и живопись», «Навои и скульптура», «Навои и кино» и «Навои и театр», показывают, как великий образ поэта отражается в жизни общества. Что касается статей, написанных в рубрике «Навои и наука», то в них подробно освещаются факты, связанные с конференциями, посвященными творчеству и деятельности Навои, научным исследованиям, ученым, принимавшим участие в этом процессе.

В узбекской науке за многие годы сделано немало положительных работ по изучению наследия великого мыслителя и поэта: среди них научные и критические тексты его произведений, неоднократные издания, обзоры его лирических произведений, прозаические повествования его поэм тоже занимает особое место энциклопедии. Также вы можете найти ценную информацию о предприятиях и организациях имени Навои в стране.

В целом «Энциклопедия Алишера Навои» представляет собой относительно совершенную книгу, охватывающую личность, мировоззрение, биографию, жизнедеятельность, литературное и научное наследие великого поэта-мыслителя, подробные сведения и научные анализы о исследованиях и достижениях в направлении наваиведения. Энциклопедия предназначена для старшеклассников, студентов высших учебных заведений, преподавателей, представителей интеллигенции различных профессий, специалистов науки и творчества, а также читателям.Естественно, что это издание, как и любая другая книга, может иметь и некоторые недостатки. Однако, как отдельная отрасль науки наваиведения также продолжает развиваться, поэтому мелкие ошибки можно исправить в будущих изданиях. Мы надеемся, что эта «Энциклопедия Алишера Навои» во многом поможет приблизить Навои к народу, а, в свою очередь, народ к Навои.

SUMMARY

Alisher Navoi was a prominent poet and thinker who had a significant impact on the development of human civilization. His life and work continue to inspire people to this day. The study of them by scientists has never stopped. The source of inspiration, secrets of spiritual perfection and strength of his creation has a unique place in the development of the art of poetic speech. The particular importance of Navoi's literary heritage has been proven by scientists not only in Uzbekistan but also among the Turkic peoples and the rest of the world. His books are unique. They emphasize the significance of harmony, unity, peaceful living, cooperation, and friendship which make people go through the true way.

The renewal and freedom in the social, political, cultural, and spiritual life of our country after 2016 has also reflected in Navoi studies. From the first days of his activity, the President of our country Sh.M. Mirziyoyev encouraged the whole nation to read and study Navoi's work with a new spiritual need and purpose. In the resolution of the President of the Republic of Uzbekistan dated October 19, 2020 No. PR-4865 "On the wide celebration of the 580th anniversary of the birth of the great poet and thinker Alisher Navoi", including the publication of the four-volume "Encyclopedia of Alisher Navoi" was also included. This encyclopedia was created in order to fulfill this task and familiarize the general public with the life, work, literary and scientific heritage of the great thinker poet, as well as the achievements of Navoi studies.

The encyclopedia devoted a lot of space to positive developments in the social, political, spiritual, and literary life of Khurasan and Movarounnahr during the second half of the 15th century, when Alisher Navoi lived, as well as the factors that created them. This allows us to understand the vitality of the Timurid Renaissance and closely observe the role of Alisher Navoi in it. There are a lot of articles about the childhood years of the great poet, his close relatives, and the details of his interactions with them in the encyclopedia they also have a significant place. The historical information and opinions related to Navoi's family, lifestyle in Mashhad, Balkh, Samarkand, his friends and contemporaries can provide readers with interest. As a minister, Alisher Navoi fully demonstrated his leading qualities in his political activities. He oversaw the construction of various structures such as ditches, bridges, parks, madrasahs, mosques, and hospitals. It should be noted that each of these works was mentioned in the encyclopedia. From the book, you can learn enough about the Turkic peoples who lived and worked in Herat, the capital of Khurasan under the rule Sultan Husayn Bayqara. It is possible to find a valuable information about their unique nature, customs, and the positions that they held in the palace in 15th century. The articles interestingly and impressively tell about the contemporaries, friends of the great poet, creative people from the time of the famous composer Alisher Navoi, and their path.

Alisher Navoi was a remarkable figure not just in Uzbek literature, but also in Eastern classical art. His books were characterized by their depth of meaning, wide-ranging subject matter, expressive style, vivid imagery, diverse genres, and artistic versatility. These aspects of his work have been carefully and systematically covered in encyclopedic articles. Navoi was a great poet who wrote equally well in

Turkish and Persian. This book includes insightful reflections on his Persian-language poetry, its universal significance, and its study. Additionally, the book covers his epic work "Khamsa," which holds a prominent place in the history of Eastern literature, along with its heroes and important views on Hamsaology. The articles in this book also shed light on the spiritual values of Navoi's work, including religion, mysticism and mystical interpretations, thereby enhancing the scientific significance of the encyclopedia.

The literary works of Alisher Navoi have been translated multiple times by experienced translators into various languages. These translations have been published and can be found in different libraries of the world. Manuscript and lithographic editions of Navoi's works are also available in these libraries and several catalogs have been created to organize information about them. This encyclopedia provides extensive information about Navoi studies, including the emergence of this field of literary studies, its development, important scholars, and their contribution to the field. Articles about Navoi's connection with painting, sculpture, cinema, and theater also show how his works have influenced society. Furthermore, the encyclopedia includes articles about Navoi's involvement with science, including information about conferences, scientific studies, and notable scholars and researchers who participated in these events.

Over the years, many positive works have been carried out in Uzbek science to understand the language of the great poet. These include scientific and critical texts, and repeated editions of his works in volumes and separately, reviews of the poet's lyrical heritage, and articles about them in the encyclopedia. Moreover, information which is related to the place names, enterprises, and organizations named after Navoi has not been overlooked.

In general, the "Alisher Navoi Encyclopedia" is an almost perfect reference book that covers many things about Navoi's personality, worldview, biography, life activities, literary, scientific heritage, detailed information, Navoi studies, and achievements in this field. It is intended for high school and educational institution students, teachers, intellectuals with various professions and trades, people of science and creativity. Like any publication, this book also has some mistakes, but the science of Navoi studies has never stopped developing. Therefore, it is clear that they can be corrected in the next editions. We believe that the "Alisher Navoi Encyclopedia" will be a useful resource to recognise Navoi's world well.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI

ALISHER NAVOIY ENSIKLOPEDIYASI

I JILD

(A–H)

Muharrirlar: Dilmurod Asqarov, Nasiba Jo‘raqulova
Badiiy muharrir: Mirzohid Rustamov
Musahhihlar: Mohigul Mavlonova, Maftuna Shomurodova
Kompyuterda sahifalovchilar: Bobur Tuxtarov, Mirzohid Rustamov

Bosishga ruxsat etildi 08.02.2024. Bichimi: 84x108 $^{1}/_{16}$.
“Times New Roman” garniturasi. Shartli bosma tabog‘i ___.
Nashriyot-hisob tabog‘i ___. Adadi: 1000 nusxa.

“Credo Print” MCHJ kitob fabrikasida chop etildi.
Toshkent shahar, Bog‘ishamol ko‘chasi 160.
Tel: 71 234-44-01/05 www.credoprint.uz

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI

ALISHER NAVOIY ENSIKLOPEDIYASI

II JILD

(I–M)

TOSHKENT – 2024

TAHRIR HAY'ATI
Bahrom ABDUHALIMOV, Nizomiddin MAHMUDOV,
Shuhrat SIROJIDDINOV, Sirojiddin SAYYID, Jabbor ESHONQULOV,
Olim DAVLATOV, Nodir JONUZOQ, Isajon SULTON

ILMIY-IJODIY GURUH
Abduqodir HAYITMETOV, Ibrohim HAQQUL, Maqsud ASADOV,
Qodirjon ERGASHEV, Sayfiddin RAFIDDINOV, Ergash OCHILOV,
Burobiya RAJABOVA, Zulayho RAHMONOVA, Sirdaryoxon O'TANOVA

MAS'UL MUHARRIR
Maqsud ASADOV,
filologiya fanlari doktori, professor

NASHR UCHUN MAS'ULLAR
Elnura QURBONOVA, Shahnoza RAHMONOVA,
Hamida ASHUROVA, Dilmurod ASQAROV

TAQRIZCHILAR
Muslihiddin MUHIDDINOV, *filologiya fanlari doktori, professor*
Sultonmurod OLIMOV, *filologiya fanlari doktori*

MUNDARIJA

I 5

J 67

K 106

L 170

M 208

Qisqartmalar ro‘yxati 486

“Alisher Navoiy ensiklopediyasi” mualliflar ro‘yxati 488

Резюме (рус.) 491

Summary (ingl.) 493

UO‘K 821.512.133-1
KBK 84(5O‘)-5
M 30

Alisher Navoiy ensiklopediyasi: Toshkent – O‘zbekiston nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2024. – ___b.

Ko‘p jildli “Alisher Navoiy ensiklopediyasi” buyuk shoir va mutafakkir, yirik davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiy mansub bo‘lgan XV asrning II yarmi Xuroson va Movarounnahrdagi tarixiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy va adabiy hayot, ulug‘ shoirning tarjimayi holi, faoliyati, yaqinlari, do‘stlari, ijodiyotining ma’naviy sarchashmalari, salaflari, adabiy merosi va uning jahonshumul ahamiyati, qolaversa, mumtoz adabiyotimiz tarixida tutgan beqiyos o‘rni xususida atroflicha ma’lumotlarni qamrab olgan yirik qomusdir. Ensiklopediyadan navoiyshunoslik masalalari, buyuk shoir asarlarining turli yillardagi nashrlari, xorijiy tillarga tarjimalari, yurtimiz va jahon kutubxonalari xazinalarida saqlanayotgan qo‘lyozma hamda toshbosma kitoblari, shuningdek, rassomchilik, haykaltaroshlik, teatr, kino singari san’at turlarida Alisher Navoiy siymosining aks ettirilishiga doir maqolalar ham o‘rin olgan. Turli she’riy janrlarga oid asarlarining sharh va tahlillaridan ayrim namunalar keltirilgan. Jumladan, kitobning mazkur 1-jildiga 620 ta maqola kiritilgan bo‘lib, ular mavzu xilma-xilligi, ko‘pgina ma’lumot va dalillarning yangiligi, aniqligi va qiziqarliligi bilan o‘ziga xosdir.

“Alisher Navoiy ensiklopediyasi” navoiyshunos olimlar, mumtoz adabiyot bilan shug‘ullanuvchi tadqiqotchilar, oliy ta’lim muassasalarining o‘zbek filologiyasi yo‘nalishi professor-o‘qituvchilari, talabalari, o‘rta maktablarning adabiyot muallimlari, umuman, Alisher Navoiy hayoti va ijodiyotiga qiziquvchi keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-oktyabrdagi “Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi PQ-4865-son qaroriga asosan Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbek tilini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan chop etildi.

ISBN 978-9910-9559-3-8
© “O‘zbekiston” nashriyoti, 2024

I

IBN SINO (Abu Ali Ibn Sino – 980, Buxoro, Afshona – mil. 1037, Hamadon) – asl ismi Husayn, otasining ismi Abdulloh. Buxoroning Afshona qishlog‘ida hijriy 370-y. amaldor oilasida tug‘ilgan. 986-y.da I.S. oilasi Buxoroga ko‘chib keladi va shu vaqtdan boshlab yosh Husayn boshlang‘ich ma’lumot olishga, ilm-fan o‘rganishga kirishadi. Uning yoshligi, yigitlik chog‘lari somoniylar hukmronligining so‘nggi yillariga, xususan, Nuh II ibn Mansur Somoniy hukmronligi davri (976–997)ga to‘g‘ri keladi. Umrining oxirgi yillarida u Isfahon, Ray, Hamadon shaharlari orasida sarson-sargardonlikda yurib, 1037-y. 18-iyunda Isfahon shahrida 57 yoshida qulunj kasalligidan vafot etdi.

I.S. asarlarining umumiy soni 450 dan oshadi, lekin bizgacha faqat 200 ga yaqin asari yetib kelgan, xolos. Qolganlari turli sabablar b-n yo‘qolib ketgan. Uning “Kitob ush-shifo” (“Shifo kitobi”) asari 22 jilddan iborat bo‘lib, 4 ta bo‘limini mantiq, fizika, matematika, metafizikaga doir masalalar egallagan. I.S.ning tibbiyotga oid qomusiy asari “Kitob al-qonun fit-tibb” 5 mustaqil asardan tarkib topgan. 20 jilddan iborat bo‘lgan “Kitob ul-insof” (“Insof kitobi”) bizgacha yetib kelmagan – Isfahondagi yong‘inda yo‘qolgan. “Kitob un-najot” (“Najot kitobi”) 4 qismdan – mantiq, fizika, matematika, metafizikadan iborat, “Kitob lison ul-arab” (“Arab tili kitobi”) 10 jildni tashkil etadi. “Donishnoma” fors tilida yozilgan bo‘lib, u ham 4 qismni – mantiq, fizika, matematika, metafizikani o‘z ichiga oladi (Rus tiliga tarjima etilgan, bir qismi o‘zbek tilida bosilgan).

I.S. biologiya, anatomiya va boshqa ko‘pgina tabiiy fanlardan tashqari falsafa hamda adabiyot sohasi b-n ham shug‘ullandi. U arab va fors tillarida she’rlar yozdi. Ayniqsa, ruboiylarida chuqur falsafiy va axloqiy mushohadalarini ilgari surdi. Uning tabobat haqidagi ruboiylardan iborat “Urjuza”lari badiiy mahorat b-n bitilgani, shuningdek, “Hayy ibn Yaqzon” (“Uyg‘oq Tirik o‘g‘li”), “Risolat ut-tayr” (“Qush risolasi”), “Salomon va Ibsol”, “Qissayi Yusuf” kabi nasriy asarlari ham Sharqda mashhurdir.

Bular orasida, “Risolat ut-tayr” (“Qush qissasi”) Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” dostoni yaralishi u-n qaysidir jihatdan turtki bergan. “Mantiq ut-tayr”ning esa N. hayoti va ijodiga nechog‘lik ta’sir etgani ma’lum.

N. o‘z asarlarida I.S.ning qomusiy olim, hakimligiga ishora qiladi. U “H.A.”ning XI maqolatida olimlar I.S.ga xos bo‘lgan ilm, hikmat va zakovat b-n falak mushkullarini osongina hal qiladi, deb bunday yozadi:

Mushkili afloq bo‘lib bejadal,
Bu Aliyi fikrati ollida hal.

N. “M.N.” tazkirasida o‘ziga zamondosh va “devonavor” kishi bo‘lgan Mavlono Bu-Ali degan shoir haqida: “Devona bo‘lmasa erdi, “Bu-Ali” taxallus qilg‘aymu erdi?”. Ya’ni devona bo‘lmasa, shunday ulug‘ odam – I.S.ning nomini taxallus qilib olarmidi, demoqchi bo‘ladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Ирисов А. Абу Али Ибн Сино. – Т., 1960; Раҳимов С. Абу Али Ибн Сино. Таълим ва тарбия ҳақида. – Т., 1967; Қаюмов А. Абу Райҳон Беруний, Абу Али Ибн Сино. – Т., 1987; Фалсафий қиссалар. – Т., 1963; Тиб қонунлари, 1-5 китоблар. – Т., 1979–*

1983; Тиббий рисолалар. – Т., 1987; Сурат ва сийрати Ибни Сино. – Душанбе, 1980; Ақидаҳойи фалсафий, ижтимоий ва ахлоқии Абу Али Ибни Сино. – Душанбе, 1975; Беруний билан Ибн Синонинг савол-жавоблари. – Т., 1973; Абу Али ибн Сино. Шеърлар ва тиббий достон. – Т., 1981; Абу Али ибн Сино. Саломон ва Абсол. – Т., 1980; Абу Али ибн Сино. Мен англаган дунё. – Т., 2012; Комилов Н. Тафаккур карвонлари. – Т., 1999; Буюк сиймолар, алломалар.1-китоб. – Т., 1995.

S.R.

IBN LA'LIY (t.y.n. – 1467-y.da o'ldirilgan) – Badaxshon shahzodasining taxallusi. U Shoh Sulton Muhammadning o'g'li bo'lgan. Sulton Abusaid mirzo davrida Shoh Sulton Muhammad mustaqillikka intilib, bo'ysunishdan bosh tortgani sababli Abu Said mirzo Badaxshonga lashkar jo'natadi. Amir Mazid boshchiligidagi bu lashkar Badaxshonga yetib kelganda shoh qarshilik ko'rsatish befoyda ekanini anglab, itoat qilishga rozi bo'ladi va bosh egib, Abu Said huzuriga boradi. I.L. yosh bo'lishiga qaramay, otasining o'z hayotini xavf ostiga qo'yayotganini tushunadi va uni qaytarishga urinadi. Lekin otasi quloq solmaydi. Shahzoda Koshg'arga ketadi. Abu Said mirzo shohni hokimiyatdan mahrum qilib, Hirotda tutqunlikda ushlab turgan vaqtda, I.L. Koshg'ardan qaytib keladi va Badaxshonda isyon ko'taradi. Sulton Abusaid Badaxshonga o'g'li Abubakr mirzoni hokim etib tayinlagan bo'lib, uning onasi Shoh Sulton Muhammadning qizi edi. I.L. Abubakr mirzoga tog'a bo'lgan. Tog'a va jiyan o'rtasida kurash boshlangan vaqtda Sulton Abusaid katta qo'shinni Abubakr mirzoga yordamga yuboradi va I.L. mag'lubiyatga uchrab o'ldiriladi. Otasi Shoh La'liy singari I.L. ham adabiyotga qiziqqan va she'rlar yozgan. N. "M.N."da I.L. qalamiga mansub quyidagi baytni keltirgan:

Ey zi la'li otashinat dar dili gulior nor,
G'ayri dil burdan nadori, ey buti makkor kor.

Tarj.: Ey, cho'g'day labingdan qizil gulning bag'riga o't tutashdi, ey makkor sanam, sening ko'ngillarni o'g'irlashdan bo'lak ishing yo'q.

Istiora, tajnis, tashbeh, mubolag'a, takror, lutf, tanosub, husni ta'lil kabi bir necha san'atlar ishtirokida yaratilgan bu bayt uning yuksak iste'dodidan darak bergan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Абдураззоқ Самарқандий. Матлаъи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. Жилд 2. – Т., 2008.*

Q.E.

IBN YAMIN FARYUMADIY (Taxallusi; ismi: Amir Faxriddin Mahmud) (1286 – Faryumad (Xuroson) – 1368) – shoir. Sabzavorning shimoli-g'arbidagi Faryumad qishlog'ida – Xuroson vaziri Xoja Alouddin Mahmud devoni daftardori bo'lgan Amir Yaminiddin xonadonida tug'ilgan. Otasi ham shoir edi. Otasining vafotidan keyin (1322) Xoja Alouddin xizmatiga kiradi. Uning aksar qasidalari shu davrda yaratilgan. 1337-y.da tug'ilgan yurtini tark etib, Gurgonga boradi va bir muddat u yerning hokimi To'g'ay Temurxon xizmatida bo'ladi. 1341-y.da vataniga qaytib, Xuroson sarbadorlariga qo'shiladi va ular safida mo'g'ul hokimlariga qarshi kurashadi. 1342-y. Zova shahri yaqinidagi janglardan birida asirga tushadi. Shu jangda u she'rlar devonini yo'qotib qo'yadi. 1347-y.gacha Hirot hokimi Malik Muiziddinning asiri bo'lib, uning xizmatini qiladi. So'ngra vataniga qaytib, 1357-y.gacha Xuroson hokimlari xizmatida bo'ladi. Keyin saroy xizmatidan qo'l yuvib, dehqonchilik qiladi. Umrining oxirida uzlatga chekinadi. Qabri Faryumadda – otasi mozori yonida.

I.Y.F.dan 13387 bayt hajmidagi qasida, g'azal, qit'a, ruboiy, tarje'band, tarkibband, masnaviy kabi janrlardagi she'rlarni o'z ichiga olgan devon yetib kelgan. Jumladan, O'zR FA Sharqshunoslik institutida uning 6 nusxasi (inv. № 176, 209, 429, 460, 721, 954) saqlanadi. Shoir ijodida qit'a yetakchi o'rin tutib, bu janrda uning ijtimo-

iy-axloqiy qarashlari o‘zining yuksak badiiy ifodasini topgan. Shoir jami 934 ta qit’a yozgan.

N. o‘zining ko‘plab buyuk salaflari qatori I.Y.F.dan ham ijodiy o‘rgangan, ta’sirlangan. Ulug‘ shoir ijodida qit’aning asosiy o‘rin tutishi (N. 300 ga yaqin qit’a yozgan: o‘zbek tilida 210 ta, forsiyda 70 ga yaqin)da qit’anavis salafining ta’siri bo‘lgani shubhasiz. Ikki shoir qit’a, ruboiy va g‘azallarini o‘zaro qiyosiy o‘rganish ular orasida adabiy ta’sir izlari mavjudligini ko‘rsatadi. Jumladan, I.Y.F. Hirotda asirlikda bo‘lganida shunday qit’a yozgan:

G‘arib agarchi vaziri shohi jahon boshad,
Hamesha mayli dilash so‘yi xonumon boshad.

Agarchi soyidi shohon boshad nishemani boz,
Vale ba komi dili boz oshyon boshad.

Tarj.: G‘arib agarchi jahon shohining vaziri bo‘lsa-da, uning ko‘ngli hamisha o‘z tug‘ilib o‘sgan vatanida bo‘ladi. Lochin shohlarning kaftida e’zozda bo‘lsa-da, xayoli o‘z uyasida bo‘ladi.

N.ning Mashhaddagi musofirlik davrida yozilgan deb taxmin qilingan quyidagi ruboiysi mazkur qit’aga hamohang jaranglaydi:

G‘urbatda g‘arib shodmon bo‘lmas emish,
El anga shafiq-u mehribon bo‘lmas emish.
Oltun qafas ichra gar qizil gul butsa,
Bulbulg‘a tikandek oshyon bo‘lmas emish.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1–4-жилдлар. – Т., 2011; Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар бўстони. – Т., 1981; Имронов С. Ибни Ямини Фарюмадий. – Душанбе, 1966; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988; Ҳайитметов А. Навоийнинг сарбадорларга муносабати // Навоийхонлик суҳбатлари. – Т., 1983.*

E.O.

IBN HUSAYN MIRZO (1480, Hirot – 1513, Koshon) – Sulton Husayn Boyqaroning o‘g‘li. Muhammad Mas’um mirzo, Farrux Husayn, Ibrohim Husayn, Muhammad Qosim mirzolar b-n onasi bir, ya’ni Popo og‘achadan tug‘ilgan. 1504-y.da akasi Ibrohim Husayn mirzo vafot etgandan so‘ng uning o‘rniga Tun va Qoyin viloyatlariga hokim etib tayinlangan. I.H.M. Sulton Husayn Boyqaro o‘g‘illari orasida o‘zining shijoati, shuningdek, oqibatli ekani b-n ajralib turgan. Otasi hukmronligi davrida o‘zaro nizolarga, xususan, otasiga qarshi harakatlarga qo‘shilmagan. Sulton Husayn vafotidan keyin ham aka-ukalari b-n birdamlik yo‘lini tutgan. 1507-y.da Shayboniyxon Balxni qamal qilganda Badiuzzamon va Muzaffar mirzolar o‘z aka-ukalarini yordamga chaqirganlar. I.H.M. Tun va Qoyindan kelib, ularga qo‘shilgan. Og‘a-inilar o‘z qo‘shinlari b-n bir yerga jamlanganda Shayboniyxon Balxni qamaldan bo‘shatib qaytib ketgan. Bu xabarni eshitgan mirzolar ham o‘z viloyatlariga tarqalganlar. I.H.M. ham Tun va Qoyinga qaytgan. Shayboniylar Xurosonga bostirib kirganda I.H.M. ularga qattiq qarshilik qilgan. Yondor (Yandar) degan joyda bo‘lgan jangda u jasorat ko‘rsatgan va Ubaydullaxonni yarador qilgan. Raboti Dudarda akasi Faridun Husayn b-n birga shayboniylarga qarshi jangga kirgan. Jangda shayboniylar g‘olib chiqqan va Husayn Boyqaro o‘g‘illariga qarashli viloyatlarni egallagan. I.H.M. Iroqqa ketgan. 1513-y. da Koshonda vafot etgan.

N.ning “S.”sida keltirilgan besh bayt I.H.M. ga bag‘ishlangan:

Soqiyo, jomi diloro xushtur,
Ichida rohi guvoro xushtur.

Jomi pok-u mayi nob andin pok,
Quyosh-u chashmayi hayvondin pok.

To ani ichgali ko‘rguzsa havas,
Saltanat bog‘ida sarvi navras.

Ham aning bazmig‘a loyiq bo‘lg‘ay,
Pok tab’ig‘a muvofiq bo‘lg‘ay.

Shahg‘a maqbul dog‘i mulkg‘a zayn,
So‘zi matbu’ o‘zidek Ibn Husayn.

Ad.: *Алишер Навоий. Соқийнома. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011; Хондамир. Ҳабиб ус-сияр. – Т., 2011; Муҳаммадёр ибн Араб Қатағон. Мусаххир ал-билод. – Т., 2009; Асадов М. Соқийнома: тарих ва поэтика. – Т., 2020.*

Q.E.

IBROHIM (a.s.) – N. “T.A.H.”da yozishicha, I. (a.s.) “ulul azm” (“sabot egalari”) bo‘lgan ulug‘ payg‘ambarlardan biri, otasining nomi Ozar, uni Torax deb ham aytganlar. U “Kufaning Kavsarmo otlig‘ kentidindur”. Va I. (a.s.) “Namrud ibni Kan’on ibni Kush ibni Iram ibni Som ibni Nuh zamonida” tug‘ilgan. I. (a.s.) Qur’oni Karim suralarining yigirma beshtasida oltmish to‘qqiz marta zikr etilgan.

I. (a.s.) tug‘ilishidan oldin o‘sha davrning hukmdori Namrudga uning kohin va munajjimlari bir farzand tug‘ilishi va uning saltanati zavolga yuz tutishidan bashorat beradilar. Namrud har qancha tadbir qilmasin, bu bola tug‘iladi. N. Namrudning minglab bolalarni qatl qilganini yozadi. Ularning sonini ba’zilar “yetmish ming”, ayrimlar “yuz ming” deb aytishgan ekan.

I. (a.s.) butga sig‘inadigan otasi va qavmlarini yolg‘iz Allohga ibodat qilishga da’vat etgan. O‘sha davrning zolim hukmdori Namrud b-n ko‘p bahslar qilgan. Ular o‘z dinlaridan qaytmaganlaridan keyin sig‘inib yurgan butlarini ushatib tashlagan. Natijada Namrud podshoning buyrug‘i b-n I. (a.s.)ni yoqib yuborish u-n ulkan olovga tashlashadi. Lekin Allohning irodasi b-n olovdan sog‘-salomat chiqadi (“Anbiyo” surasi 68-72-oyatlar). N. yozadiki, olovning kuchliligidan hech kim uning yaqiniga borolmas edi. Shu bois I. (a.s.)ni manjaniqqa solib, o‘tga tashlaganlar. “Naqldurkim, o‘tqa yetmasdin burun Jabroil (a.s.) kelib so‘rdikim, hojating nedur? Ibrohim (a.s.) dedikim, sanga hech hojatim yo‘qtur, angakim hojatim bor. Ul vaqtdur Haq taolo maloikaga Ibrohim (a.s.)ning sidq-u tavakkulin ko‘rguzub, har oyinakim o‘tni anga guliston qildi, Namrud gumrohg‘a asar qilmay, Ibrohim (a.s.)ni Bobil shahridin ixroj qildurdi”. Oqibat I. (a.s.) duosi b-n Namrud lashkarlari ulkan pashshalar guruhi tarafidan nest-nobud qilinadi. Namrudning o‘zi ham bir pashshaning dimog‘iga kirib qolishi natijasida halok bo‘ladi.

Alloh tarafidan I. (a.s.)ning tushida o‘g‘li (Ismoil (a.s.)ni qurbonlik qilish buyuriladi. Ilohiy amrga binoan bunga ota ham, bola ham chin dildan rozi bo‘ladilar. Bu ishning hikmatini faqat o‘zi bilgan Alloh bolaning o‘rniga qurbonlik u-n qo‘chqor yuboradi. N. “T.A.H.”da keltiradiki: “Tangri taolo amri bila Ibrohim (a.s.) qurbong‘a ma’mur bo‘ldi. Ismoil (a.s.)nikim, qurratul-ayni erdi, Tangri rizosi uchun Mino tog‘i ustida ayog‘-ilkin bog‘lab, qurbon qilurg‘a pichoq bo‘g‘zig‘a surdi. Va Haq taolo aning sidqi barakotidin qurbonin qabul qilib, bihishtdin Ismoil (a.s.) evazi Jabroil (a.s.)g‘a amr bo‘ldikim, qo‘chqor kelturub, Ibrohim (a.s.) ani qurbon qildi”.

Makkayi mukarramada Baytulloh (Allohning uyi)ning bunyod bo‘lishi, islom arkonlarining beshinchi farzi – haj qilish ham I. (a.s) nomi b-n bog‘lanadi. Manbalarda I. (a.s.)ning 175 yil umr ko‘rgani, o‘g‘illari tomonidan Madinat ul-Xalil (Xevron, Falastin)ga dafn etilgani yozilgan. Bu qabr ziyoratgoh hisoblanadi. N.ga ko‘ra “...va Ibrohim (a.s.)ning umri ixtilofida yuz to‘qson besh yil debdurlar. Va Shom navohiysida Jabrun qaryasida Tangri taolo rahmatig‘a bordi va ani Sora” yonida dafn qildilar. N.ni yozishicha, Ibrohim ismining ma’nosi “Rahmdil ota” (Abu Rohim)dir.

N. uning laqabi “Xalilulloh va Xalil ul-rahmon” ekanini aytadi. Ma’lumki, I. (a.s.) ismiga ko‘pincha Xalilluloh sifatida qo‘shib ishlatiladi.

N. keltirgan “Abuz-zifyon”, ya’ni “Mehmonlar otasi” kunyasi esa uning hech vaqt mehmonsiz ovqatlanmasligiga ishoradir. I. (a.s.) tasavvuf adabiyotida futuvvat – javonmardlik tariqatining asoschilaridan, deb ko‘rsatiladi. Abdurahmon Jomiy yozadi:

Buti xudro bishkan xor-u zalil,
Nomvar shav ba futuvvat chu Xalil.

Tarj.: O‘z butingni (nafsingni) xor va zalil qilib sindir. Xalilga o‘xshab javonmardlikda mashhur bo‘l.

Zero, I. (a.s.)ning Qur’oni Karimdagi sifatlaridan biri “Fatiy”dir. Ba’zi manbalarda “Abulfatiyyon” fatiylar, javonmardlar otasi sifati b-n keltiriladi. Bu esa I. (a.s.)ning futuvvat, ya’ni javonmardlikning boshida turgan zotlardan ekanini bildiradi.

Ibrohim Xalilulloh odamlarni tavhid – yakkaxudolikka da’vat qilgani u-n Namrud tomonidan manjaniq b-n olovga tashlangani va Alloh taolo amri b-n olov salqinlik va omonlikka aylangani N. ijodida ko‘p qo‘llangan talmehlardan biridir. M-n:

Jamoling partavidin sham’ o‘ti gar gulsiton ermas,
Nedin parvona o‘t ichra o‘zin solur Xaliloso?..

To ani ichkach, Navoiyg‘a ochilg‘ay gulsiton,
Gar sabukruhona kirsa o‘tqa andoqkim Xalil...

Ohim ko‘ngulni ko‘yung aro solsa ne ajab,
Gulzor aro Xalil tushar manjaniqdin.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Носируддин Бурҳониддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. 2 жилдлик. 1-жилд. – Т., 1990; Пайғамбарлар тарихи (Исломият тарихи). – Т., 2014; Муҳаммад Саййид Тантовий. Пайғамбарлар тарихи (Қуръони Карим қиссасалари). – Т., 2014.*

S.R.

IBROHIM MUHAMMAD XALIL (XV asr) – shoir. N.ning “M.N.” tazkirasida ma’lumot berilishicha, I.M.X. Nimruzdan to G‘azna viloyatigacha hukmronlik qilgan Muhammad Xalilning o‘g‘li bo‘lib, yaxshi qobiliyatli, odobli, muloyim va hurmatli yigit bo‘lgan. I.M.X. “M.N.” tazkirasidagi turkigo‘y shoirlardan biridir. N. uning quyidagi matla’sini keltiradi:

Ko‘rub ag‘yorni filhol ilik ko‘ksumgakim, urdum,
Emas ta’zim uchun, xanjarlari
zaxmini yoshurdum.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

S.G‘.

IBROHIM ADHAM (Ibrohim Adham – otasining ismi; o‘zining to‘liq ismi: Abu Is’hoq Ibrohim Adham bin Sulaymon bin Mansur Balxiy) (697, Balx – 777, Makka) – mashhur zohidlardan. Balx podshohi bo‘lgan. O‘z ixtiyori b-n toj-u taxtidan voz kechib, faqr yo‘lini tutgan. Avval Makkada, so‘ng Shomda yashagan. Halol rizq topish u-n (luqma hilliyati) o‘tinchilik b-n shug‘ullangan. U o‘z faoliyatida faqr va tavakkulni keng targ‘ib qilgan. Xususan, faqrga katta e’tibor berib, uni maqsadga yetishning asosiy vositasi hisoblagan.

Avval Marvga keladi, keyin Nishopurga o‘tadi. Bu yerda bir g‘orda 9 yil toat-ibodat b-n shug‘ullanadi. Haftada bir kun o‘tin yig‘ib, Nishopur bozoriga olib borib sotar, puliga non olib, yarmini darveshlarga sadaqa qilardi. Bu – zohidlikning oliy darajasi edi. VII–VIII asrlarda zohidlar shunday yashar edilar.

Shundan so‘ng Makkaga yo‘l oladi va toat-ibodat b-n shug‘ullanadi.

N.ning “L.T.” dostonida I.A.ni zamon qutblari imtihon qilib ko‘rganlari haqidagi hikoyat keltiriladi.

Ma’lumki, so‘fiy ilohiy ishq yo‘lida hamma narsani unutishi kerak. Ilohiy ishq yo‘lida toj-u taxti, ahli oilasidan voz kechgancha Nishopurga kelib, o‘tin tashib tirikchilik qilib yurgan I.A.ni ham zamonasining valiylari musht urib, imtihon qilganlarida, dastlab: “Sizlar istagan u narsa Balxda qolib ketgan!” – deb javob beradi. “Balxni unutmabdimi, u hali notamom ekan”, – degan qarorga kelishadi ulug‘lar. Oradan bir yil

o‘tib, shu ishni takrorlaganlarida esa undan sado chiqmaydi. “Mana endi u kamolga yetibdi”, – deb unga oq fotiha berishadi:

G‘ayr yodi ko‘nglida to bor edi,
Parda yanglig‘ moneyi asror edi.

Ko‘nglidin bilkull chu zoyil bo‘ldi ul,
Parda qo‘pqoch peshgahg‘a topti yo‘l.

Bu fanog‘a kimki topti dastras,
Oni derlar pokboz, ey bulhavas!

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд; Фаридиддин Аттор. Тазкират ул-авлиё. – Т, 1997, 2013; Абдуллаев А. Тасаввуф ва унинг намояндалари. – Т., 2009; Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. – Душанбе, 1987; Ҳомидий Ҳ. Тасаввуф алломалари. – Т., 2004; Абдуқодиров А. Тасаввуф истилоҳларининг қисқача изоҳли луғати. 1-китоб. – Хўжанд, 1997.*

H.H., E.O.

IBROHIM HUSAYN MIRZO (1478–1505, Hirot) – Sulton Husayn Boyqaroning o‘ninchi o‘g‘li, Balx viloyatini boshqargan (1486-y.). N. ning ukasi Darvesh Alibek ana shu davrda Balxni I.H.M. nomidan idora qilgan (1486–1490). Darvesh Ali Majdiddinning fitnalaridan norozi bo‘lib, isyon ko‘tarmoqchi bo‘lib turgan paytda ham I.H.M. Balxda edi. Darvesh Alibek uni Balxdan chiqarib yuborishning yo‘lini qidirgan va bir hiyla ishlatgan. Ya’ni Sulton Husayn Boyqaroning muhrini yasatgan va I.H.M.ning Hirotga chaqirilayotgani haqida soxta farmonga bosib, mirzoga yetkazgan. Shundan so‘ng o‘zining isyon ko‘tarish rejasini amalga oshirishga kirishgan.

Keyinroq Balx viloyatida Badiuzzamon mirzo hokimlik qilgan. Ota-o‘g‘il o‘rtasida nizo va kelishmovchiliklar paydo bo‘lib, oxir-oqibatda ular bir-birlari b-n jang qilganlar. Badiuzzamon mirzo mag‘lubiyatga uchrab qochib ketgandan so‘ng, Sulton Husaynning farmoni b-n I.H.M. yana Balxga hokim etib tayinlangan. 1498-y.da Xisravshoh Balxni qamal qilganda I.H.M. viloyatni himoya qilgan.

I.H.M. ichkilikka ruju qo‘ygan edi. Shuning orqasidan 27 yoshida vafot etgan. N.ning I.H.M. tilga olingan birdan-bir asari “S.”dir, undagi quyidagi baytlar ushbu mirzoga bag‘ishlangan:

Soqiyo jomi hiloli tutqil,
Boda xurshid misoli tutqil...

Ham o‘shul jomi hiloli bila tut,
Boxtar shohi xayoli bila tut...

Aqli har ishta raso, tab’i salim,
Kim erur naqdi Husayn Ibrohim.

Yuqorida N. I.H.M.ni “Boxtar shohi” deb ataydi. Bu mirzoning Balx hokimi ekaniga ishoradir (Boxtar Balxning qadimiy nomi bo‘lib, Baqtriya nomi ham shu b-n bog‘liq).

Ad.: *Алишер Навоий. Соқийнома // Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011; Хондамир. Буюклик хислати. – Т,. 2011; Асадов М. Соқийнома: тарих ва поэтика. – Т., 2020.*

Q.E.

IBROHIMOV Oqilxon Akbarovich (1958–2022, Toshkent) – san’atshunoslik fanlari doktori, prof. “Mehnat shuhrati” ordeni va “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi” (2021) faxriy unvoni sohibi. Olim musiqa va san’at maktablari u-n darsliklar, o‘rta va oliy ta’lim muassasalari u-n o‘quv qo‘llanmalar, monografiyalar, yuzlab maqolalar va 50 dan ortiq turkum teleko‘rsatuvlar muallifi. “Hazrat Navoiy va maqom”, “Alisher Navoiyning samo’ falsafa-

si”, “Alisher Navoiyning musiqiy-estetik qarashlari”, “Hazrat Navoiy ijodida maqom san’ati”, “Sab’ai sayyor”ning navo sirlariga doir”, “Hazrat Navoiy ijodi Yunus Rajabiy talqinida” kabi o‘nlab ilmiy maqolalarida N. boy adabiy, ilmiy merosining musiqa b-n bog‘liq jihatlari o‘rganilgan.

Ad.: *Иброҳимов О. Ҳазрат Навоий ва мақом // Мусиқа ижодиёти масалалари. – T., 2002; Ibrohimov O. “Sab’ai sayyor”ning navo sirlariga oid // Alisher Navoiy va XXI asr. Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari to‘plami. – T., 2021.*

B.R.

IBROHIMOV Sobir (1905–1974) – f.f. d-ri, prof. Olim 1939-y. “Navoiy aforizmlari” nomli to‘plam tuzgan. 1948-y. “X.” asarini nashrga tayyorlagan. 1972-y.da esa “Navoiy asarlari lug‘ati”ni tuzishda qatnashgan.

Ad.: *Навоий афоризмлари. – T., 1939; Навоий асарлари луғати. – T., 1972.*

E.U.

IBHOM (ar. − yopiq so‘zlash, berkitish) − murakkab ma’naviy san’atlardan biri bo‘lib, uni ishlatish shoirdan jiddiy mehnat, mahoratni talab etadi. Shu sababli I. san’ati mavjud bo‘lgan she’riy namunalar boshqa san’atlarga nisbatan u qadar ko‘p emas. Shoir misrani shunday tuzadiki, uni o‘qiganda bir-biriga zid bo‘lgan ikki xil ma’no yuzaga keladi. Albatta, bunda misrani tashkil etgan gap bo‘laklarining tartibi muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, ikki qarama-qarshi ma’noda har birini yuzaga chiqarish u-n misrani muayyan ohang b-n o‘qish talab qilinadi. Boshqacha aytganda, birinchi ma’nodan ikkinchi mazmunga o‘tganda gapdagi bo‘laklarning (asosan, bosh bo‘laklarning) vazifasi o‘zgaradi (ega kesimga aylanadi yoki aksincha). M-n, *“Oy yuzingni ollida gul bo‘ldi xor”* misrasidan qarama-qarshi ma’no chiqarish mumkin: gul (ega), xor bo‘ldi (kesim) va xor (tikan ega), gul bo‘ldi, gulga aylandi (kesim). Biroq birinchi ma’no shoirning haqiqiy muddaosi hisoblanadi. Faqat misra shunday tuzilganki, urg‘uning o‘rnini o‘zgartirish orqali undan ikkinchi bir ma’noni yuzaga keltirish mumkin.

N. o‘z ijodida mazkur san’atdan ham mahorat b-n foydalangan. Shoir asarlarida uning go‘zal va rang-barang namunalarini ko‘ramiz. M-n:

Yor ollida gar bor yo‘q ersa, ajab ermas,
Ag‘yor, chu bor anda, Navoiy, sanga ne bor?!

Baytning ikkinchi misrasida ikki ma’no mujassam: 1. Raqib bor yerda, N., senga nima bor? 2. N. bor yerda, raqib, senga nima bor?

Quyidagi baytda esa N. la’l xoro (tosh) bo‘ladi, xoro la’l degan fikrni singdiradiki, shoirning asl maqsadi aslida shu:

Kalomingni agar Shirin labida
qilmading muzmar,
Nedin, bas, la’l o‘lur Farhodning
qon yoshida xoro?!

Shuni unutmaslik kerakki, I. san’ati shoir tomonidan maxsus ishlatilishi, shuningdek, ijodkorning o‘zi sezmagan holda u yoki bu misrada yuzaga kelishi ham mumkin. Mazkur san’at mavjud bo‘lgan misralarda shoirning xulosaviy fikri she’rning umumiy yo‘nalishi, baytning tub mazmuni asosida aniqlanadi. Biroq ma’lum maqsadda I. ishlatilgan she’riy parchalar ham bo‘ladiki, ularda har ikki ma’no ham (maqtov va hajv) asosiy o‘rinda turadi va ko‘pincha shoirning fikri keyingisiga moyilroq bo‘ladi. I. mumtoz adabiyotda ba’zi muhim fikrlarni parda ortida bayon qilishda qulay poetik vosita sifatida xizmat qilgan.

Ma’lum bo‘ladiki, I. san’atidan keng foydalanish N. badiiy mahorati yuksakligining yana bir isbotidir.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – T., 2011; Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун*

ул-балоға // Ўзбек тили ва адабиёти. 2002, №8; Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъ ус-санойиъ (А.Рустамов тарж.). – Т., 1981; Раҳмонов В. Шеърий санъатлар. – Хўжанд, 1972; Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т., 2006; Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2010.

E.O.

IVANOV Sergey Nikolayevich (1922–1999) – taniqli turkolog olim, mohir tarjimon, f.f. d-ri (1970), prof. (1971). Leningrad (hozirgi Sankt-Peterburg) artilleriya – texnika bilim yurtini, so‘ng Sankt-Peterburg Davlat universiteti Sharq tillari fakultetini tamomlagan va mazkur oliygohda o‘qituvchi, kafedra mudiri lavozimida faoliyat ko‘rsatgan. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi (1981). 1975–1985-yy.da Leningraddagi turkologiya seminari rahbari bo‘lgan.

Tilshunos olim sifatida o‘zbek tili grammatikasiga oid tadqiqotlar olib borgan. “Hozirgi o‘zbek tilida *-gan* bilan tugaydigan shaklning sintaktik funksiyalari” mavzusida nomzodlik (1958) hamda “Abulg‘ozixonning “Shajarayi turk” asari. Grammatik tahlil” mavzusida doktorlik dissertatsiyalarini yoqlagan.

Sharq tillarini puxta egallagan olim tarjima sohasida samarali mehnat qildi. I.S.N.ning tarjimonlik faoliyatida N. asarlarini tarjima qilish yetakchi o‘rin tutadi. Olim N. 10 jildlik asarlar to‘plamining rus tilidagi tarjimasiga katta hissa qo‘shgan: 1- va 2-jildlariga kirgan lirik she’rlarning bir qismi, shuningdek, “L.T.” dostonini tarjima qilgan. Bunda, xususan, N. g‘azallari alohida bir mahorat b-n o‘girilgan va aksariyati eng yaxshi tarjimalar sifatida e’tirof etilgan. (Qarang: **“Navoiy asarlarining rus tiliga tarjimalari”**). Olim N. ruboiylarini ham rus tiliga muvaffaqiyatli tarjima qiladi. Shuningdek, boshqa kichik janrlarga (qit’a, tuyuq) mansub she’rlarini ham rusiyzabon o‘quvchilarga yetkazishga hissa qo‘shgan. 10 jildlikning 2-jildi tarkibiga kiritilgan bir qancha ruboiylar, qit’a va tuyuqlar I.S.N. tomonidan ruschaga o‘girilgan. Tarjimon keyinchalik “L.T.” dostoni va N. g‘azallari tarjimasi ustidagi ishlarni davom ettirib, ularni qayta ishladi va yangi nashrini tayyorladi.

1965-y. I.S.N. M.Gorkiy asos solgan “Shoirlar kutubxonasi” seriyasida akademik V.M.Jirmunskiyning tavsiyasi b-n “Навои. Стихотварения и поэмы” to‘plamini nashr ettirdi. Ushbu kitobda ilk bor ulug‘ shoir g‘azallarining turli ijodkorlar tomonidan qilingan tarjimalarini jamlab, kitob holida nashr etdi. Bu kitobga shoir dostonlaridan parchalarni ham kiritdi.

To‘plam u-n yozilgan so‘zboshida N. davri, adabiy muhiti, shoirning hayot yo‘li, davlat arbobi sifatidagi faoliyati hamda adabiy merosi – lirik she’riyati, “X.” dostonlari haqida anchayin mufassal, “L.T.”, “M.N.”, “M.L.”, “M.A.” yuzasidan qisqacha ma’lumotlar va ba’zi lirik janrlar (g‘azal, ruboiy, tuyuq va boshqa)ning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risidagi ilmiy qaydlarni rus o‘quvchilariga yetkazdi.

Rus olimi N.ning Sayyid Hasan Ardasherga yozgan she’riy maktubini ham o‘z tiliga o‘girgan. “L.T.” esa ruscha 10 tomlikning VIII tomida nashr etildi. Olim N.ning mazkur 10 tomlik ruscha asarlari IV tomiga kiritilgan “M.N.”, “H.S.A.” va “H.P.M.” kabi asarlari tarjimasiga muharrirlik qildi.

I.S.N. 1978-y.da katta so‘zboshi va izohlar b-n N. lirikasidan qilgan o‘z tarjimalari va “X.”-dan M.Tarlovskiy, L.Penkovskiy, S.Lipkin V. Derjavinlar tarjimalaridan parchalarni “Alisher Navoiy” kitobiga kiritgan bo‘lsa, 1981-y.da o‘zbek she’riyatidan qilgan tarjimalarini “Кровное слово” kitobida nashr etdi.

I.S.N. N. hayoti va ijodini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy-an’anaviy konferensiyalarda faol ishtirok etib, birinchi bo‘lib N. tarjimalarining yutuq va kamchiliklarini tahlil qilish zarurligini ko‘tarib chiqdi.

I.S.N. O‘zbekiston u-n malakali turkolog kadrlar tayyorlash sohasida ham maqtovga sazovor fidoyilik ko‘rsatgan olimdir.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; ЎзМЭ. 4 жилдлик. – Т., 2002; Заҳириддин Муҳамамад Бобур энциклопедияси. – Т., 2014; Алишер Наваи сочинения 6, 10 томах. – Т. 1968; В красенетленкой предстаёт. Узбекская классическая лирика XV–XX в.в. Перевод С.Иванова – М., 1977; Наваи Алишер "Язык птиц". Перевод С.Иванова. – СПб., 1993. Навои. Стихотворения и поэмы. М-Л., 1965; Родословное древо тюрок Абул Гази Ханаср Грамматический очерк. (Имя и глагол. Грамматические категории). – Т., 1969; Ғаниева С. Истеъдод қирралари // Ўзбекистон маданияти, 1972 йил 1 апрель.; Ғаниева С., Каримов Н. Камолот // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1982 йил 9 апрель.*

S.G'., M.A.

IKKI G'ARIB – Sulton Husayn Boyqaroning o'g'illari Muhammad Husayn va Abutturob mirzolar. N. "S."sining XIII bo'limi ularga bag'ishlangan. N. ularning nomini keltirmaydi, balki "ikki g'arib" deb tilga oladi. Buning sababi shuki, Muhammad Husayn va Abutturob mirzo bu paytda o'z vatanlari Xurosonni tark etib, Iroqqa ketgan va o'sha yerda g'ariblikda yashab turgan edilar. Ularning ketib qolishiga sabablar uncha ravshan emas. Bobur Abutturob mirzo haqida ma'lumot berganda bu voqeaga bir jumlada to'xtalib o'tadi va shunday yozadi: "Otasining behuzurlug'i ortqonda o'zgacha xabar eshitib, inisi Muhammad Husayn mirzo b-n qochib, Iroqqa bordi". Muhammad Husaynning otasi b-n munosabati yaxshi bo'lmagani, uning bir necha marta Sulton Husayn mirzoga qarshi isyon ko'targani tarixiy manbalarda qayd qilingan. Uning tabiatiga xos sarkashlikni N. ham "M.N."da ta'kidlab o'tadi. Shunday bo'lsa-da, ulug' shoir "S."da bu ikki shahzodaning taqdiri haqida qayg'uradi, o'zga yurtda, musofirlik va g'ariblikda ularning hollari qanday kechayotganidan tashvishlanadi:

Kim kelur ko'ngluma ul ikki g'arib,
Kim ul ikkini jalo qildi nasib.

Ayr-u shah yanglig' atodin ham alar.
Yuz tuman komravodin ham alar.

Ne ekin hollari g'urbat aro,
Boshqa g'urbatda kelur shiddat aro.

N.ning bu ikki g'aribning tushlariga o'z vatanlari, shoh otalari kirarmikin, degan mazmundagi va o'zi ham ularni unuta olmayotgani haqidagi misralari g'oyatda ta'sirli chiqqan:

Tush ko'rarlarmu ekin shohni hech,
Vatan-u maskan-u bungohni hech?

Ikkisi yodi bila bir qo'sh tut,
Ki ko'nguldin menga bo'lmaslar unut.

Shoir ularning qaytib kelishlariga umid bildiradi va yozadi:

Himmatin kosh baron tutqay shoh,
Kelgali ul ikov inshoolloh.

N.ning bu tilagi shahzodalarning bittasi borasida amalga oshgan. Muhammad Husayn mirzo Xurosonga qaytgan. Otasi uni kechirgan va keyinchalik u Astrobod hokimi etib tayinlangan. Abutturob mirzo qaytmagan. "Boburnoma"da uning darveshlik yo'liga kirgani, shundan so'ng u haqida hech qanday xabar kelmagani haqida yozilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий. Манбаларининг қиёсий-типологик, текстологик таҳлили. – Т., 2011; Асадов М. Соқийнома: тарих ва поэтика. – Т., 2020; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 2002; Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Т., 1983; Файзиев Т. Темурийлар шажараси. – Т., 1995.*

M.A.

IGU TEMURBEK (1391-y.da vafot etgan) – Sohibqiron Amir Temur davrida xizmat qilgan

lashkarboshi. Asli kelib chiqishi bilgut urug‘idan. Amir Temurning ko‘plab yurishlarida ishtirok etib, saltanatining kengayishiga hissa qo‘shgan. Xurosonga qilingan yurish vaqtida Fushanj qal’asini olishda jasorat ko‘rsatgan (1381). Afg‘onlar b-n to‘qnashuvda yaralangan (1383). Iroqqa qilingan harbiy yurishda ham ishtirok etgan. To‘xtamishxon qo‘shinlari b-n to‘qnashuvda halok bo‘lgan (1391). I.T. o‘zining mardligi va oliyjanobligi b-n ajralib turgan. “Zafarnoma”da ma’lumot berilishicha, To‘xtamishxon b-n bo‘lgan asosiy jangdan oldin Amir Temur I.T.ni o‘z qismi b-n ilg‘or sifatida oldinga yuborgan. Dushmanlar ularni payqab qolgani sababli bu qism chekinishga majbur bo‘lgan. I.T. o‘z odamlarining qirilib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik u-n to ular xavfsiz joyga yetib olgunlariga qadar son jihatdan juda ko‘p bo‘lgan dushmanlarni to‘sib turgan va tengsiz jangda o‘ldirilgan. Tarixiy asarlarni, xususan, “Zafarnoma”ni ko‘p mutolaa qilgan N., tabiiyki, bu voqealarni yaxshi bilgan, I.T. shaxsi va faoliyatiga hurmat b-n qaragan. Bundan tashqari, u Samarqandda yashagan davrida I.T.ning nabirasi Darveshbek b-n do‘st bo‘lgan. U “M.N.”da Darveshbek haqida ma’lumot berib, uning nasabi haqida shunday yozgan: “Darveshbek Mirzo Ali Igu Temurbek o‘g‘lidir, nasabi xud olam ahlig‘a zohirdur”. N. Darveshbekning nasabi sharif ekanini ta’kidlaganda, albatta, birinchi navbatda uning I.T. nabirasi ekanini ko‘zda tutgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. – Т., 1997.*

Q.E.

IDRIS (a.s.) – Qur’oni Karimda nomi zikr etilgan payg‘ambarlardan biri. U Qur’oni Karimning “Anbiyo” va “Maryam” suralarida tilga olinib, uning sabr va sidq tajassumi ekanligi ta’kidlangan. Islomshunoslar uni Bibliyadagi Joh, ba’zan Ezdra kabi afsonaviy shaxslar b-n taqqoslaydilar. N. uni suryoniy payg‘ambar, deb yozadi. Yazid ibni Mahloyilning o‘g‘li bo‘lib, oti Axnuh bo‘lgan, keyin I. (a.s.) deb ataganlar. Otasi uni o‘z o‘rniga valiahd qilib tayinlagan.

Naql qilishlaricha, u yer yuzida 365 yil yashagan. Butparastlarga qarshi kurashib, g‘azot va jihod qoidasini joriy qilgan. Yozuvni kashf etgan, nujum ilmiga asos solgan. Uni musallas ulne’mat hisoblaydilar. Chunki “uchunchi payg‘ambar va uchunchi hakim va uchunchi podshoh erdi. Yunon ahli aqidasi budurkim, Hurmis hakim uldur. Xat va nujum ilmini ul paydo qildi va kiymak va yemak andin qoldi. Haq taolo aning uchun o‘tuz sahifa nozil qildi”. Taqvodorligini taqdirlab, Alloh taolo uni yuksak martabaga ko‘targan – u abadiy hayotga noil bo‘lgan: jannatda yashaydi. Ayni jihatdan jannatni Idrisxona deb tashbeh ham etadilar.

Muhammad (s.a.v.) Me’roj kechasi I. (a.s.)ni 4-osmonda ko‘rgani haqida hadis mavjud.

N. I. (a.s.) haqidagi ma’lumotlarini quyidagi to‘rtlik b-n yakunlaydi:

Chu Idris olamda bo‘ldi muqim,
Rasul erdi-yu, podshoh-u hakim.
Agarchi anga bo‘ldi uchmoq makon,
Jahon ichra xud qolmadi jovidon.

N. “T.A.H.”da boshqa asarlarida ham turli badiiy maqsadlarda I. (a.s.) nomini tilga oladi. Jumladan, musaddaslaridan birida shunday yozadi:

Nechakim sursun Masih anfosi jonparvar kalom,
Yoki jannat vasfida Idris qilsun ehtimom,
Charx bog‘i birla jannat gulshanin
qilman maqom –
Kim, manga holo banaqd,
ey zod sarvi xushxirom,
Sunbulungdur uqdayi ra’su
yuzung mohi tamom,
Orazing firdavs-u qad to‘bi-yu
la’ling Salsabil.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул маъоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Бурҳони қотеъ. Жилд. 1. – Душанбе, 1993; Ислом (Энциклопедия). – Т., 2004.*

S.R.

IZDIVOJ (ar. – juftlash, juftlashmoq) – bayt-da ikki yoki undan ortiq qofiyadosh so‘zni yonmayon yoki bir-biriga yaqin qilib keltirish san’ati.

Ko‘kni **tun-kundin** *musamma’ ayladi,*
Mehr-u anjumdin murassa’ ayladi.

N. ijodida izdivoj ko‘pincha qofiyadosh so‘zlarning yonma-yon emas, balki ma’lum masofada joylashishi natijasida hosil bo‘lgan. M-n, quyidagi misralarda izdivoj hosil qiluvchi so‘zlar “bilan” hamda “aylasa” so‘zlarining ikki tomonida joylashgan.

Yorni o‘z yoriga har **fan** *birla* **dushman** *qildilo.*
Har ne **mahbub** *aylasa* **marg‘ub** *erur.*

Quyidagi baytlarning har ikki misrasida izdivoj faqat ikkita so‘z vositasida yuzaga kelgan:

Boda xushdur, gar **harifim** *bo‘lsa bir yori* **zarif,**
May **harifi** *gar* **zarif** *ermas, anga ermon* **harif.**

Birinchi misradagi ikkala so‘z (harif, zarif) ning keyingi misrada kelishi oddiy takror emas, balki yangi badiiy matnda muayyan vazifani bajaradi: birinchi misradagi fikr maqsadni (shoirning fikri shunchaki orzu emas, balki qat’iy qaror ekanligini) ta’kidlashga xizmat qiladi.

N.ning yuksak mahorati I. san’atini qofiya va radif vazifasida kelgan so‘zlarga tatbiq qilgan o‘rinlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. M-n, quyidagi ruboiyda qofiya-so‘zlar b-n radif iboraning ikkinchi qismi izdivoj hisoblanadi.

Ganj uzra ayog‘ingga **murur** *o‘ldi* **g‘urur,**
Gulgasht eta gulshanda **huzur** *o‘ldi* **g‘urur.**
Dunyo soridin sanga **surur** *o‘ldi* **g‘urur,**
Bu borcha g‘urur o‘ldi, g‘urur o‘ldi, g‘urur!

Bu yerda “murur”, huzur”, “surur” qofiyalari “g‘urur” radifi b-n o‘zaro juftlashib, I. san’atini hosil qilmoqda. N. qator g‘azallarida ham bu usuldan mahorat b-n foydalangan. M-n:

Do‘stlar, men telba ahvolig‘a yig‘lang
zor-zor –
Kim, soladur gah-gah o‘t ko‘nglumga
tushkan xor-xor.

Mazkur she’rlarda I. maxsus ishlatilganligi shubhasiz. Adabiyot tarixida I. san’ati izchil qo‘llangan (xususan, qofiya bilan radifda) g‘azallarni topish qiyin. Izdivoj ba’zi manbalarda “tazmini muzdavoj” deb ham ataladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Т., 1979; Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Хўжанд, 1972; Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т., 2006; Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2010.*

E.O.

“ИЗУЧЕНИЕ ЖИЗНИ И ТВОРЧЕСТВА АЛИШЕРА НАВОИ В РОССИИ” (“Alisher Navoiy hayoti va ijodining Rossiyada o‘rganilishi”) – Ibodulla Mirzayev va G.T.Nurovalar qalamiga mansub monografiya. Kitob Belorussiyaning Minsk shahrida nashr qilingan. Monografiya “Buyuk o‘zbek shoiri, mutafakkiri va davlat arbobi Alisher Navoiy Rossiya sharqshunosligida”, “Rossiyada navoiyshunoslikning mintaqaviy jihatlari”, “Rossiya navoiyshunosligida munozarali masalalar” deb nomlangan uch bobdan iborat bo‘lib, unda N. hayoti va ijodi haqida tarixiy ma’lumotlar, rus adabiyotida N. ijodi b-n tanishishning tarixiy bosqichlari, rus olimlari tadqiqotlarida N. asarlari, rus turkologiyasida N. ijodining keng ko‘lamli tadqiqotlari, Moskvada

N. hayoti va ijodining o‘rganilishi, Sankt-Peterburgda n.shunoslik hamda Rossiyaning turkiy tilli respublikalarida shoir merosini o‘rganish xususiyatlari, N. ijodining o‘rganilishida Rossiya olimlarining xalqaro miqyosdagi ishtiroki, N. ijodiy merosi haqidagi ilmiy bahslarning tabiati va mohiyati, zamonaviy rus ilmiy ma’ruzalarida N. va Rossiyadagi istiqbolli tadqiqot yo‘nalishlarida N.ning hayoti va ijodi masalalari tahlil qilingan bo‘lib, shoir ijodini keng miqyosda o‘rganish imkonini beradi. Kitobda N. ijodiy olamining rus sharqshunoslari tomonidan amalga oshirilgan talqini, xususan, Moskva, Sankt-Peterburg shaharlarida, Rossiyaning turkiy tilli respublikalarida qanday o‘rganilganligi tahlil qilingan. Turli yillarda chop etilgan kitoblarning yutuq va kamchiliklari o‘rganilib, galdagi dolzarb vazifalar yuzasidan fikr yuritilgan.

Ad.: *Изучение жизни и творчества Алишера Навои в России*: *авторизованный перевод с английского / Мирзаев И.К., Нурова Г.Т. – Минск, 2022.*

Bad.M.

IZHORI AJZ – mumtoz adabiyotda keng qo‘llanilgan badiiy-uslubiy usullardan biri. Bunda muallif o‘zi madh etmoqchi bo‘lgan obyektning ulug‘ligini, buyukligi yoki go‘zalligini uni ta’rif va tavsif etish orqali emas, balki o‘zining ta’rif va tavsiflariga ojizligi, tili gung-u lol, qalami beholligini izhor qilish orqali ko‘rsatadi.

N. o‘zining ijodida ushbu usuldan samarali foydalangan. “L.T.” dostonida u Sulton Husaynning fazilatlari va ulug‘ligini I.A. vositasida ko‘rsatadi:

Men ne ayta olg‘amen avsofini,
Xulq-u lutf-u adl ila insofini.

Kim agar yuz ming meningdek nazmkesh
Qilsa ming yil safha ruhsorin resh,

Vasfining mingdin biri aytilmag‘ay,
Balki yuz mingdin biri yozilmag‘ay.

I.A.ning qo‘llanishiga N. g‘azaliyotidan ham misollar keltirish mumkin:

Sanoyi zoting uzra topib ajz ahli idrok,
Gahi louhsi aytib, zamone “mo arafnok”.

Yoki:

Navoiy qaysi til birla sening hamding
bayon qilsun,
Tikan jannat gulin vasf eturda
gung erur go‘yo.

I.A.dan foydalanish N.ning nasriy uslubi u-n ham xosdir. Jumladan, “X.M.” debochasida u shohdan o‘zining keyingi yozgan she’rlari b-n oldingi ikki devonidagi she’rlarini qo‘shib to‘rt devon tuzish haqida hukm bo‘lgani, bu ishning ulkanligi va mashaqqati haqida yozar ekan, I.A. usuliga murojaat qiladi: “Bu hukm chun qulog‘img‘a yetishti, ajz-u zabunluq o‘tining dudi ko‘nglumdin dimog‘img‘a yetishtikim, hukm qaviy erdi-yu, mahkum zaif va amr bag‘oyat kulliy erdi-yu ma’mur asr-u nahif...”.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Хўжанд, 1972; Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Т., 1979; Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т., 2006; Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2010.*

Q.E.

IYHOM (Ihom) (ar. – shubhaga solish, adashtirish) – so‘zning ko‘p ma’nosini ifodalashga asoslangan ma’naviy san’at. Bunda ikki ma’noli so‘z ishlatilib, birinchi ma’nosi yaqqol ko‘zga tashlanib turadi, ikkinchi ma’nosi esa yashirin bo‘ladi. Shoirning asl maqsadi ana shu ikkinchi yashirin ma’no bo‘lib, uni zukko o‘quvchigina topadi. Ikki ma’noda ishlatilgan ana shu so‘z baytni ikki ma’noda talqin qilish imkonini beradi. Shuning u-n ham I. ma’naviy san’atlar ichida eng

murakkablaridan bo‘lib, zabardast so‘z san’atkorlari undan mahorat b-n foydalanganlar. Bu ularga o‘zlarining muhim fikrlarini pardalangan holda ifodalash imkonini beradi.

Samarqandda tahsil olib yurgan yigitlik yillaridayoq ustozi Sayyid Hasan Ardasherga yozgan she’riy maktubida

Agar xossa ma’ni, gar iyhom erur,
Aning kunda yuz bayti halvom erur.

Ya’ni, “Xoh xos ma’no, xoh iyhom bo‘lsin, har kuni ular asosida yuz bayt bitish men u-n halvo yeyishday oson” deya o‘z iste’dodining qudrati b-n faxrlangan N. ijodining bu san’atga boyligi o‘z-o‘zidan ma’lum. M-n:

Bo‘lmayin subh za’faroniy chehr,
Charx ko‘rguzmas anga hargiz mehr.

Bu yerda “mehr” so‘zi ikki ma’noda kelyapti: quyosh va lutf, shafqat. Baytning ko‘rinib turgan ma’nosi ushbu: “Tongning yuzi sarg‘aymay falak unga hech qachon quyoshni ko‘rsatmaydi”. Shoir ko‘zda tutgan ma’no esa: “Kishi to qiynalmay mehr ko‘rmaydi” degan fikrdan iborat.

Quyidagi baytda esa “ravon” so‘zining “darhol, tez” va “jon” ma’nosi asosida iyhom hosil qilingan:

Jilva qilmaqtakim ravon ko‘runub,
Ruhdin go‘yiyo nishon ko‘runub.

Yana:

Ey Navoiy, sharhi holimni, dedim,
irsol etay,
So‘zidin har safhag‘a o‘t tushdi,
ham kuydi qalam.

Bu yerda “so‘z”ning ikkinchi ma’nosi forsiy “kuymoq”dir.

I. qo‘llab, fikrini ikki ma’noda ifodalash shoirdan katta mahorat talab qilsa, uni anglash o‘quvchidan muayyan tayyorgarlik va zukkolik talab qiladi.

Agar shoir qo‘llagan ko‘p ma’noli so‘z uch yoki undan ortiq ma’noga ega bo‘lsa, I.ni zilvujuh deb yuritadilar.

I. o‘ziga xos yashirin so‘z o‘yini bo‘lib, uning vositasida shoirlar o‘z mahoratlarini namoyish qilib, bir so‘z orqali ikki xil fikrni ifodalabgina qolmay, ochiq aytish mumkin bo‘lmagan ba’zi fikrlarni ham pardalab aytadilar.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Шамси Қайси Розий. Ал-мўъжам. – Душанбе, 1991; Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъ ус-санойиъ (А.Рустамов тарж.) – Т., 1981; Раҳмонов В. Шеър санъатлари. Л., 1972; Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т., 2006; Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2010; Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Т., 1979.*

Y.I., E.O

“IKKI VAFOLIQ YOR BIR-BIRISI VAFOSIGA BOSHLARIDIN KECHGANI” – “H.A.” dostonining sakkizinchi – “Vafo bobi”ga ilova sifatida keltirilgan hikoyat. Uning mazmuniga ko‘ra, to‘rt ulus xoni Amir Temur Hindistonni fath etadi. Va asirlarni qatl etishga buyuradi. Ular orasida ikki vafoli yor bor edi. Ular bunga dosh berolmasdan yolvorishadi:

Kim sanga maqsud agar bosh erur,
Qo‘y ani, bu bosh anga podosh erur.

Chun anga yuzlandi qo‘yub yorini,
Yori ham etti bu so‘z izhorini.

Kim meni qatl ayla burun tez bo‘l,
Toki men o‘lguncha tirik bo‘lsun ul.

Bazl qilurlar edi bir-birga bosh,
Boshlarig‘a tig‘ uchun erdi talosh.

“Ikki vafoliq yor”ning sidq-u vafosini ko‘rgan shoh qatlni bekor qiladi, shuningdek, ular “barakatidin yuz ming bosh qilichdin qutuladi”.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011.*

M.A.

“IKKI SHATRANJ O‘YNAG‘UVCHI USTOD” – “L.T.” dostonidagi hikoyatlardan birining boshlang‘ich misrasi. “L.T.” dostonining ayrim qo‘lyozmalarida bu hikoyaga “Shatranji kabir o‘yunining hikoyati” deb ham nom qo‘yilgan. Bu hikoya tasavvufda ma’naviy kamolotning to‘rtinchi bosqichi – Istig‘no vodiysida ilgari surilgan g‘oyalarni badiiy asoslash maqsadida keltirilgan.

N. ta’rifiga ko‘ra, Istig‘no vodiysida shoh ham, gado ham, “a’lo va adno” ham teng, yanada aniqrog‘i, yetti daryo bir qatraga, yetti do‘zax bir uchqunga aylanib, chumoli (“mo‘r”)lar sherlarni, pashsha filni ovlashi, mingta farishtaga nisbatan bir odam qadri yuqori baholanib, “sharaf toji”ni kiyishga sazovor bo‘lishi mumkin. Unda musulmonning ham, kofirning ham martabasi bir bo‘lib, Xudo ularni barobar ko‘radi. Shu sabablarga ko‘ra inson oldindan hukm chiqarmasligi, dunyodagi hamma narsalarga va hodisalarga hushyor qarashi, ularning hech birini kamsitmasligi, qiyinchiliklar oldida tushkunlikka tushmasligi lozim.

N.ning fikricha, bunga eng yaxshi misol shatranj o‘yini bo‘lib, undan g‘oyat to‘g‘ri xulosalar chiqarsa bo‘ladi.

Shoir mazkur hikoyada tasvirlashicha, ikki shaxmat ustasi o‘yinga o‘tirib, shaxmat taxtasini o‘rtaga yoyadilar va donalarni tera boshlaydilar. Donalarning nomidan va miqdoridan ma’lum bo‘lishicha, bu oddiy shaxmat emas, balki 100 xonali shaxmat (“Shatranj kabir”) bo‘lib, donalarning nomlari ham odatdagidan rang-barang. Bunda bizga ma’lum ot, fil, farzin, ruh, piyoda, shoh kabi figuralardan tashqari jirafa (zurravo), ayiq (dabboba), toshbaqa (kashshofa, ba’zi qo‘lyozmalarda: kunnofa tuya) kabi figuralar ham bor. N. fikricha, shaxmat o‘yini hayotdagi va tabiatdagi ziddiyatlar va rang-barangliklar asosiga qurilgan bo‘lib, oq donalar Rum ahlini eslatsa, qora donalar zang ahli – qora tanlilar, habashlarni eslatadi. Ikki tomon safga tizilib, o‘zaro kurash boshlar ekan, bu jamiyatdagi harbiy kuchlar, armiyalar o‘rtasidagi to‘qnashuvlarni kishi ko‘z oldiga keltiradi. (“Kinavarlar ot solib maydon aro”, “Ham yayoq cherik sipoh oldida chust”, “Harb ahli ham urush rasmin tuzub” va hokazo). Ayniqsa, bir tomonning hujumiga o‘tishi, ikkinchi tomonning mudofaa choralarini ko‘rishi, shohlarning shohlik mavqeyida, qo‘mondonlarning qo‘mondonlik mavqeyida jangni tashkil etishi, o‘ng qanot (burong‘or) va chap qanot (javong‘or) jangchilarning chaqqon harakat qilib, qo‘shinning avangard (xirovul) qismiga yordam berishi, jang davomida piyodalar, ya’ni o‘g‘illarning o‘z otalari o‘rniga ko‘tarilishi, ya’ni piyodalarning yirik figuralarga aylanishi (“O‘z atosiga bo‘lib qoyim maqom”), hatto butun bir qo‘shinni bir o‘zi daf qiladigan farzin darajasiga ko‘tarilishi shoir tomonidan haqqoniy va jonli tasvirlab berilgan. N.ga ko‘ra, bu o‘yinning qiziq, boshqalarga o‘rnak tomoni shundaki, o‘yin tamom bo‘lgandan keyin, taxtalar yopilib, donalar xaltalarga solinar ekan, tomonlarda o‘yin vaqtidagi dushmanlikdan asar ham qolmadi:

Ne qolur ul razm ila kindin asar,
Ne hamul tartib-u oyindin asar.

Shu b-n birga, o‘yin vaqtida biri shohman, yana biri vazirman, farzinman deb maqtangan figuralar bir-biri b-n aralashib, piyodalar shohlarning ustiga chiqib ketishi, shohlar ularning ostida qolishi ham mumkin va buning ahamiyati yo‘q:

Chun xarita ichra bog‘landi bori,
Shah quyidur yo piyoda yuqori.

N. hikoya oxirida hammani bu timsoldan o‘zi u-n tegishli xulosa chiqarib olishga, odamlarni manmanlikka, o‘zaro dushmanlikka berilmaslikka undaydi:

Chun bu ma’ni sori bo‘ldung rahshunos,
Barcha ishni aylagil mundin qiyos.

Ushbu hikoya o‘zining falsafiy-insonparvarlik g‘oyasi va syujeti, obrazlarining hayotiyligi b-n shoir dostonining eng muhim bir tarkibiy qismini tashkil etadi. Hikoyada shaxmat donalarini jonlantirish usuli orqali shoir yuksak badiiy ta’sirga erishgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Шатранжи кабир ўйинининг ҳикояти, “Ўзбекистон маданияти” газетаси. 1958, 2-апрель сони. Адабиёт: Ҳайитметов А. Навои о шахматах. 1959, №5.*

Ab.H.

ILYOS (a.s.) – Qur’oni Karimda nomi zikr etilgan payg‘ambarlardan biri. N. uni Horun (a.s.) naslidandir, ba’zilar uni Idris (a.s.) b-n adashtiradilar, deydi.

N.ning yozishicha, I. (a.s.) Horun (a.s.) naslidandir.

Rivoyat qilishlaricha, Hizqil (a.s.)dan so‘ng bani Isroil orasida ko‘p buzuqliklar sodir bo‘lgan. Ya’ni Muso (a.s.) dini o‘rtadan ko‘tarilib, “Tavrot” hukmlari unutilgan. Qavm butparastlikka mashg‘ul bo‘lib, fisq-u isyon haddan oshgandan keyin Haq taolo I. (a.s.)ni ularni hidoyat qilish u-n yuboradi. Odamlar I. (a.s) so‘zini qabul qilmaydilar, hatto uni o‘ldirishga qasd qildilar. I. (a.s.) Allohning amri b-n ularning orasidan ketib, yashirincha tog‘larda hayot kechirgan. Ba’labakka podshohi bir katta but yasaydi va nomini Ba’l qo‘yib, barcha ishida undan madad so‘rar edi. Podshohning suyukli bolasi xasta bo‘lganda o‘z butidan madad so‘rab, o‘g‘lining sog‘ayishini tilagan. Hatto o‘g‘lining sog‘ayishi u-n Shom viloyati butlaridan madad so‘rashga ko‘plab vakillarini yuboradi. I. (a.s.) ularga ro‘para kelib, “Ey nodon qavm, bu qotib turgan haykallardan hech naf’ va zarar yo‘qdir, nega bolaga dard bergan Xoliqdan shifosini so‘ramaysizlar?” – deydi. Qavm uning so‘zini kelib podshohga aytadi. Podsho I. (a.s.)ni olib kelish va jazolash u-n unga odamlar yuboradi. Nogohon osmondan o‘t tushib, u elni kuydirib yuboradi. I. (a.s.) Ilohiy amr b-n Ba’labakka kelib, Yunus (a.s.)ning otasi uyida hamda ajuza (kampir)lar uylarida maxfiy, yashirinib yurar edi. Oxiri qavmining nodonligidan aziyat tortib, duo qildi. Uch yil yog‘in yog‘may, qahatchilik bo‘ldi. U yana amri Ilohiy b-n qavmiga yuzlanadi, ularni iymonga da’vat etadi. Qavmi qabul qilib duo qilishini va yog‘ingarchilik bo‘lishini undan so‘raydi. I. (a.s.) Allohga yolvorib duo qilgach, ko‘kda bulut paydo bo‘lib, yomg‘ir yog‘adi. Mushriklar va’dasiga vafo qilmagandan keyin qavmidan ranjigan I. (a.s.) Alyasa’ (a.s.) ni o‘z o‘rniga qoldirib, xaloyiqning ko‘zidan pinhon bo‘lib ketadi.

Aytishlaricha, Tangri taolo uni izzat pardasida eldin mastur (pardali) asrabdir. Quruqlik va yerda (bahr-u bar) darmondalarga dastgirlik qiladi va xuddi Xizr (a.s.) kabi hozir ham tirikdir (vallohu taolo a’lam). Uning payg‘ambarlik muddati va da’vatida bir kishi uning diniga kirgan edi.

Boshqa manbalarda ham aytilganidek, abadiy hayot topgan payg‘ambarlar orasida I. (a.s.) bo‘lib, ko‘proq u suvda, ya’ni daryo va dengizda ofat yetsa, insonlarga Alloh izni b-n yordam berar ekan. Xizr (a.s.)ni esa asosan quruqlikdagi rahnamo pir sifatida talqin qilishadi. N. I. (a.s.) haqidagi qissani shunday yakunlaydi.

Ilyosqa eldin chu ko‘b o‘ldi tug‘yon,
Elning ko‘zidin ruhdek bo‘ldi nihon.

Har kimni xalos qilsa eldin Yazdon,
Ne tong anga umri abadiy bo‘lsa nihon.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Носируддин Бурҳониддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. – Т., 2009; Пайғамбарлар тарихи (Исломият тарихи). – Т., 2014.*

S.R.

“ILK DEVON” – N.ning 24–25 yoshlarida shoirning o‘z she’rlarini devon holiga keltirishini kutib o‘tirmay, muxlislari tomonidan tuzilgan

devoni (1465). U ilmda “I.D.” nomi b-n mashhur. Mohir xattot Sultonali Mashhadiy tomonidan ko‘chirilgan ushbu devon N.ning 25 yoshgacha yozgan 391 g‘azali, 41 ruboiysi, 1 muxammasi, 1 mustazodini – jami 434 ta she’rini o‘z ichiga oladi. Ba’zi g‘azallarining N.ning 14–15 yoshlarida yozilgani va Sayyid Hasan Ardasher kabi o‘z davrining fozillari tomonidan yod aytib yurilgani uning shoir sifatida juda erta tanilganini ko‘rsatadi. Devon uning yoshligidanoq zabardast shoir bo‘lgani va yetuk badiiyat durdonalarini yaratganiga dalildir. “Ushshoq” va “Munojot” nomlari b-n mashhur bo‘lgan “Qaro ko‘zum...” va “Kelmadi” nomli g‘azallari shular jumlasidan. Bu she’rlar asosan ishqiy mavzuda bo‘lib, ularning ko‘pchiligi keyinchalik tahrir qilinib, boshqa devonlariga kiritilgan.

“I.D.” haqida taniqli n.shunos Y.Is’hoqov maxsus tadqiqot olib borgan va “Alisher Navoiyning ilk lirikasi” nomli monografiya yaratgan (1965). Olim yosh shoir she’rlarining g‘oyaviy-badiiy mundarijasi va o‘zigacha bo‘lgan an’anaga munosabatini tekshirar ekan, jumladan, uning salaflari she’rlaridan farq qiladigan va hatto ustun turadigan fazilatlaridan biri ularning syujetliligi ekani haqidagi fikrni ilgari suradi. Shu o‘rinda, “I.D.”dan N.ning nafaqat yoshlik, balki yigitlik davrida yozilgan she’rlari ham o‘rin olganini ta’kidlab o‘tish kerak.

“I.D.” qo‘lyozmasi Sankt-Peterburg davlat kutubxonasida (sobiq Saltikov-Shchedrin nomidagi) 564-a raqami b-n saqlanadi. O‘z davrining eng mashhur kotibi ko‘chirgani va nihoyatda ziynat berilgani uning oliy tabaqa u-n maxsus ko‘chirilganini ko‘rsatadi. Qo‘lyozma faksimilesi 1968-y.da H.Sulaymon tomonidan nashr etilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1–4-жилдлар. – Т., 2011; Султон И. Навоийнинг қалб дафтари. – Т., 1969; Исҳоқов Ё. Алишер Навоийнинг илк лирикаси. – Т., 1965; Ҳайитметов А. Навоийхонлик суҳбатлари. – Т., 1993; Қаюмов А. Асарлар. 3-жилд. – Т., 2009.*

M.A., E.O.

ILM (ar. – bilmoq, tushunmoq) – biror sohaga oid ma’lumotlar yig‘indisi, fan, ma’rifat va h.k. Qur’on va hadislarda I.ga tashviq qilingan ko‘plab oyat va hadislar bor. Shuning u-n ham Sharq xalqlari hayotida azal-azaldan I.ning qadri baland, olimning darajasi yuksak bo‘lgan. O‘z davrida N. ham ziyoli va taqvodor xonadonda o‘sdi hamda saroy muhitida tarbiya topdi. Uning zehni favqulodda baland, iqtidori yuksak edi.

Tarixchi Xondamir “Makorim ul-axloq” asarida N. bolalikdan umrining oxirigacha “vaqtining ko‘p qismini I. egallash va kamolotga erishish ishiga sarflagani”, “yoshlik yillari va yigitlik davrida” o‘z davridagi “mashhur kitoblarni mutolaa qilishga mashg‘ul bo‘lgani”, doimo safarda bo‘lsin yo shaharda Mavlono Fasihiddin Muhammad Nizomiyning “ilmidan foydalanish u-n xizmatda turgani” haqida xabar beradi. N. ning o‘zi ham I.ga bo‘lgan intilishini “M.Q.” asarida shunday ifodalaydi: “...goh ilm madorisida (madrasalarida) safi niol (oxirgi saf)da yer tuttum, goh ulamo majlisida ilm nuridin ko‘ngulni yoruttum”. N. I.ni targ‘ib qilgan baytlarida “oz-oz” bo‘lsa ham I. o‘rgangan odam oxiri “dono” bo‘lishi, aksincha I. sohalarini “orlanib” so‘ramagan kishi o‘ziga “zolim” bo‘lishini eslatib o‘tadi.

N. “T.A.H.”da keltirishicha, No‘shiravoni odilning vaziri Buzrukmehr ustozidan so‘rabdi: “Yigitlikda ne qilmoq yaxshi va qarilig‘da ne qilmoq yaxshi? Ustozi aytibdiki: “Yigitlikda ilm kasb qilmoq va qarilig‘da ani amalg‘a kelturmak”, – yaxshidur. “Ilmni amalga keltirish” uni ezgulik va ma’rifat yo‘lida sarflashdir.

I. mashaqqatini chekkan va uning samarasidan to‘la bahramand bo‘lgan N. bir umr I. ahlini, talabalarni qo‘llab-quvvatlab kelgan. “V.” asarida uning tolibi I.larga va mudarrislarga maosh tayin qilgani, qorilar u-n “Dor ul-huffoz” gumbazi, I. o‘qitish u-n “Ixlosiya” madrasasi va so‘fiylar u-n “Xalosiya” kabi o‘nlab “binoyi xayr” (Bobur)lar qurganidan xabar beriladi. Xondamir va boshqa tarixchilarning guvohlik berishicha, N. Jamoliddin Atoullohni, Mir Ka-

moliddin Husaynni, Mavlono Mu'iniddin Voizni, Husayn Voiz Koshifiy kabi zamondosh olimlarni doimo moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlab turgan.

Yana N. "M.Q."da I. ustozlari bo'lgan mudarrislarning qanday bo'lishi haqida ko'rsatmalar berib aytadiki, ularning dars berishdan maqsadi "mansab bo'lmasa va bilmas ilmni ayturg'a" kirishmasa, o'zini ko'rsatish u-n dars halqasini "tuzmasa", kamtar va din I.larini yaxshi biluvchi, yomonlardan yiroq va yaxshilarga hamdam bo'lsa, o'zini olim bilib, johillar u-n fisq-u fasod ishlarga ruxsat bermasa, agar u mumkin bo'lmagan ishlarni qilsa, qilishi kerak bo'lgan ishlarni tark etsa, bu mudarris emas, "mubtade'dur" (bid'atchidir) va mundoq kishining "islom ahli" b-n "suhbati mumtane'dur" (man etilgandir). Olim taqvodor va ogoh va "ayturi qolalloh va qola Rasulullo" bo'lishi lozim. Qit'a:

Har ne aytur bo'lsa Xudovu Rasuldin
Andin so'ng o'lsa mujtahid-u avliyo so'zi.

Andin kishi ne kim eshitur va yoki o'rganur
Bo'lsa Xudo so'zi, yo'q esa, Mustafo so'zi.

N. asarlarida o'sha davr I. sohasining barcha turlari tilga olinadi: Riyoziyot (matematika), handasa (geometriya), ilmi hay'at, musiqa, ilmi nujum (astronomiya), hikmat, falakiyot, tib, tarix, lug'at, adabiyotshunoslik. U "S.I." dostonida 138 marta hikmat so'zini qo'llash orqali, Iskandarga hamroh bo'lgan va mushkul damlarda yaqindan yordam bergan yunon faylasuflarining donoliklari, tadbirkorliklari, ilmiy kashfiyot va ixtirolarini ta'riflab, ko'plab muammolarning aynan I. va hikmat b-n hal bo'lishini ta'kidlab o'tadi. Dostonda keltirgan Naqumohis, Arastu, Filotun-Aflotun, Suqrot, Asqalinus, Buqrot, Hurmus, Faysog'urs kabi yunon olimlarning ilm-u hikmati va donishmandligi orqali ilm-ma'rifatni targ'ib qiladi hamda o'z davridagi olimlarni el-yurt u-n foydali ishlar b-n shug'ullanishga undaydi.

N. "F.Sh." dostonida ham Sulton Husayn Boyqaroning o'g'li Abulfavoris Shohg'arib Bahodirga qilgan nasihatlarida I. va olimlik sharafi haqida batafsil to'xtaladi. Dostonda shoir shahzodaga saxiy, odil va ziyrak bo'lish, yaxshi-yomonni farqlash yo'llarini ko'rsatib, uni I. o'qishga, "kasb-u kamol" hosil qilishga undaydi. Kimki o'qish-o'rganishdan erinsa, deydi, – N., – I. ahli oldida o'zi xijolat bo'lib qoladi. N. I. va hikmat b-n yer va quruqlikni egallagan Iskandarni misol qilib ko'rsatar ekan, Temurxon naslidan bo'lgan Ulug'bek mirzoning qilgan ishlari va "Ziji Ko'ragoniy"dek o'lmas asari b-n qiyomatga qadar nom qoldirganini ham eslatib o'tadi. U birgina fan b-n qanoatlanib qolmasdan, boshqalarini ham egallashni, ayniqsa, din ilmi deya ta'rif berilgan tafsir, hadis va fiqh I.larini o'rganishga jiddiy kirishish kerakligini, shuning barobarida tib va hikmat I.lari "g'oyat yaxshi I.lar bo'lib, bular kishi jismining sihati u-n zarur" ekanini ta'kidlaydi, bilimlarni o'qishdan charchaganda, tarix kitoblariga murojaat qilishni maslahat beradi. U I.larni egallash barobarida I. ahlini, olimlarni hurmat qilishga chaqiradi. "Man akrama oliman faqad akramaniy", ya'ni "Kimki, olimlarni izzat qilsa, go'yoki meni izzat qilibdi" va "Al-ulamou varasatul anbiyo", ya'ni "Olimlar payg'ambarlarning merosxo'rlari" degan ikki hadis ma'nosini she'rida shunday ifodalaydi:

Birovkim qilsa olimlarg'a ta'zim,
Qilur go'yoki payg'ambarg'a ta'zim.

Hadis o'lmish nabiydin bo'yla hodis
Ki, "Olim keldi payg'ambarg'a voris".

Dunyoda ming turli mansabdorlar, yuksak maqom va martaba sohiblari bor bo'lib turgan bir payti, faqat olimlargina payg'ambarlarga voris bo'lishi, olimlikning beqiyos ulug'ligi va sharafli ekanidan darak beradi. Biroq N. olimlikning izzat va obro'siga putur yetkazadiganlarni malomat qilgan. U bir qit'asida "kim ilmni vositayi joh etsa", suiiste'mol qilsa, o'zini ham "xalqini" ham gumroh qiladi", deb ta'kidlaydi. Yoki qaysi olim johil kishini qarshisiga o'tqazib, uni mul-

zam va mot qilishni orzu qilsa, bu odati o‘ziga kamsitish, xo‘rlash, tahqirlash bo‘lib qaytadi. Shuning u-n ham shoir bu borada: “Olim kerakki, o‘z ilmining poya va miqdorin asrag‘ay, gavharni imtihon u-n toshqa urmag‘ay”, deydi.

Xorag‘a har kishikim, durri saminni urg‘ay,
Xirad anglarki, qayu biri birini sindurg‘ay.

Aql yuritilsa, qimmatbaho durni qattiq toshga urgan kishi, toshni emas, durni sindiradi, boyligidan ajraladi. N. “M.Q.”da fosiq olim o‘z nafsiga zulm qiluvchi “donishmand”dir. Baxil boy esa ziyon ko‘rib, pushaymon bo‘luvchi nodondir. Bu ikki kishini “umr zoye o‘tkardilar va go‘rga hasrat va armon olib bordilar”, – deydi. Nega? Biri ilm o‘rganish u-n mashaqqatlar tortdi-yu, “amal qilmadi”, biri esa mol yig‘ish u-n ranj chekti-yu, “sarf qilurin bilmadi”.

Sharq axloq falsafasidan teran joy olgan tushuncha bor. I.siz adab, adabsiz I. mukammal bo‘lmaydi. Biri daraxtga, boshqasi daraxt mevasiga qiyos qilingan. N. bu ikki so‘z o‘zaro bog‘liq va bir-birini taqozo qilgani u-n ham ko‘p o‘rinlarda yonma-yon qo‘llangan. U bir baytida ma’no ahllari va fozillar orasidan joy olish u-n I.da komil va adabda namuna bo‘lish kerakligini uqtirgan.

Adab o‘rgan, ilm hosil qil,
Ahli ma’nilarga o‘zni vosil qil.

Shoir boshqa asarlarida ham I. o‘qib, amal qilmaganlarni tanqid qiladi, amalsizlikning fojialarini ko‘rsatib beradi. I.ga amal qilishni shoir, avvalo, o‘zidan talab qilgan:

Ilm, Navoiy, senga maqsud bil,
Emdiki ilm o‘ldi – amal aylagil.

Ayniqsa, shoir “M.Q.” asarida bu masalaga takror-takror qaytadi. Asarda I. o‘qib amal qilmagan, yerni shudgor qilib, urug‘ sepmagan odamga yoki urug‘ sepib, hosil olmagan kishiga o‘xshatiladi.

N.ning “S.I.” dostonida bayon qilinishicha, Luqmoni Hakimdan “ilmni kimdan o‘rganding?”, deb so‘rashganda, “nodon va johillardan” deb javob bergan. Luqmoni hakim buning sababini tushuntirib, johillarning qilgan har bir ishi “yomon” bo‘lgani u-n, uning aksini qilib, yomonlikdan “amon”lik toptim, shu jihatdan ular menga ustoz bo‘ldilar, degan ekan.

N. I. o‘qitgan ustozlarni e’zozlash, hurmatini joyiga qo‘yish oson emasligini ham aytib o‘tadi. “Shogird agar shayx ul-islom, agar qozidur, agar andin ustod rozidur – Tangri rozidur”. Demak, ustoz ham ota-ona kabi alohida hurmatga loyiq. Uning Haq yo‘lida o‘rgatgan bir harfiga shogird yuzlab xazinalar in’om qilsa ham, haqqini ado etolmaydi.

N. madrasalarda o‘qitiladigan I.ni “qol” – zohiriy I., tariqat I.ini esa “hol”, ya’ni botiniy I.ga ajratgan. Ortiqcha mehnat-mashaqqat chekmasdan, Haq tomonidan yetgan I.ni esa laduniy deb atagan. “N.M.” tazkirasida ba’zi shayxlar haqida ma’lumot berganda, “Zohir ulumi va botin ulumig‘a jome’dur”, “Usul va ulumi zohirda olim ermish”, “Ulumi zohiriy va botiniy bila olim erdi”, “ilmi zohir ulumida ham kutubi bor” kabi jumlalarni keltirib, shariat va tariqat I.lariga ishora qiladi.

Demak, N. o‘z asarlarida inson hayotida I.ning ahamiyatini ko‘rsatib, uni targ‘ib qilish b-n birga, ustoz va shogirdlik odoblariga ham to‘xtalgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Вақфия. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ғиёсиддин Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Т., 2018.*

S.R.

“ILMI DIN KASBI QILKI...” – N.ning “B.V.” devoniga kiritilgan qit’asi:

Ilmi din kasbi qilki, sud ermas,
Charx mushkullarini hal qilmoq.
Lekin ul ilm dog‘i naf’i etmas,
Bilibon bo‘lmasa amal qilmoq.

Hadislardan birida: “Alloh taolodan foydali ilm so‘rangiz va befoydasidan saqlaningiz”, deyilgan. “Charx mushkullarini” hal qilmoqqa yordam bermaydigan ilmlarni hazrat N. befoyda ilm deb hisoblagan. Va bunday ilm b-n mashg‘ul bo‘lmoqni maqsadga aylantirmaslikka chaqirgan. Bundan murod, qaysi shakl va qay jihatdan bo‘lmasin, fanga, oxir-oqibatda xalqqa foyda yetkazishdir. Hayot va ong taraqqiyotiga xizmat qilmagan ilm – ilmsizliqdan o‘zga narsa emas. Taraqqiyot u-n esa bilishning o‘zigina kifoya etmaydi: bilimga yarasha amal ham kerak. El-u yurtga ilmdan yetadigan naf – bebaho. Bu ma’naviy foydaning o‘rnini boshqa hech nima to‘ldira olmaydi. Shuning u-n N. alohida urg‘u b-n:

Lekin ul ilm dog‘i naf’i etmas,
Bilibon bo‘lmasa amal qilmoq, –

deb yozgan edi. Bilgan narsani bilaman, bilmaganni bilmayman, deya olish – mana shu haqiqiy bilim. Bilim darajasiga muvofiq amal va harakat chin olimga xos fazilat sanaladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Haqqul I. Kasbi kamol o‘zni tanishdir. – T., 2021.*

I.H.

ILMI LADUNIY (ar. – yaqin ilmi, ya’ni haqiqiy ilm – ilohiy ilm) – Haq taoloning fayzi fazlidan kishida hosil bo‘ladigan ilm. G‘oyibdan kelgan ilm, ilmi Xudodod. Botiniy ilmlar, ya’ni tasavvuf ilmi, hol ilmi. Alloh o‘zi xohlagan kishilarigagina beradigan ilm. I.L. avliyolarga yuboriladigan ilm ham deyiladi. Jumladan, Boyazid Bistomiy kalom ahliga qarab: “Sizlar o‘z ilmlaringizni jonsiz narsalardan, biz esa mangu barhayot Zotdan olamiz”, – degan ekan. Bunda u jonsiz narsalar deganda narsa-ashyolarni ko‘zda tutadi. I.L. esa Xizr ilmiga qiyos etiladi. Solih qul (Xizr a.s)ga nisbatan “Bas, bandalarimizdan bir bandani topdilarki, biz unga o‘z dargohimizdan rahmat ato etgan, o‘z huzurimizdan ilm bergan edik (Kahf: 18/ 65)” oyati mutasavviflar u-n ladun ilmini izohlashda asosiy manba bo‘ldi. Va zohir ilmining qarshisida botin irfoni ham borligini qabul etib, shu ma’rifatga erishish maqsadga aylandi. Chunki u yer ostidagi obi hayot – tiriklik suvini topib ichgan va uning sharofati b-n barcha sir-u sinoatdan, hamma voqea-hodisadan, butun tuyg‘u-kechinmalardan, narsalarning mohiyati va xususiyatlaridan xabardor, sodir bo‘lajak narsalarni oldindan biladi: Xudo unga o‘z ilmidan ato etgan. N. “T.A.H.”da Xizr (a.s.) haqida xabar beradiki: “Va ba’zi debdurlarkim, Haq taolo Xizr alayhissalomg‘a ilmi ladunni nasib qildi va hayvon suyi iborat ondindur”. “N.M.” tazkirasida ham Xizr (a.s.) I.L.dan dars beruvchi ustoddir: “Mavlono Sarroj Hofiz (r.t.) doim “Kalomulloh” tilovatig‘a mashg‘ul erdi. Birav eshik darzidin ehtiyot bila mulohaza qildi, ko‘rdiki, aning qoshida bir nuroniy pir o‘lturubdurki, olam ahlig‘a o‘xshamas. Chun ul masjiddin chiqdi, ko‘rgan kishi Mavlono xidmatig‘a borib, ul kishini so‘rdi. Mavlono hech nima demadi. Chun mubolag‘a qildi, dediki, Xizr alayhissalomdurki, kelib, laduniy ilmini manga dars aytur. Hind mulkida muqarrardurki, dushanba kuni bu buzurgvor ziyoratig‘a xaloyiq musharraf bo‘lurlar”.

Ibn al-Arabiy inson bilimlarini 3 ga bo‘lgan: birinchisi – aqliy-hissiy bilimlar, ikkinchisi – hol ilmi, uchinchisi – sir-u asror ilmi. Birinchisi zohiriy fanlar b-n shug‘ullanadigan kishilar ilmi bo‘lsa, ikkinchisi hol maqomiga ko‘tarilgan so‘fiylar ilmi, uchinchisi avliyolar ilmi: bu ilm muqaddas ruhlar orqali keladi va nur ko‘rinishida ko‘ngilga inadi.

Muhammad G‘iyosuddinning “G‘iyos ullug‘ot”ida yozilishicha, laduniy ilm kishiga ustozsiz, mehnat-mashaqqat chekmasdan Alloh tarafidan beriladigan ilmdir. I.L.ga vahiy, ilhom

va farosat kiradi. Vahiy payg‘ambarlarga, ilhom avliyolarga, farosat esa barcha insonlarga beriladi. Abu Nasr Forobiy “Ilmlarning tasnifi” asarida laduniy bo‘lgan vahiy haqida aytadiki, Alloh taolo kerakli xabarlarni o‘z payg‘ambarlariga vahiy orqali yetkazishi zaruriy. Agar vahiy orqali yetkazilgan ma’lumotlarga insonlarning aqli yetganda edi, u holda insonlar o‘z aqliga ishonar va na payg‘ambarlarga, na valiyga ehtiyojlari bo‘lmasdi. Holbuki, boshqa insonlarga (g‘aybni bilish) qobiliyati berilmagan. Shu sababli, dinlar bildirgan narsalarga insonlarning aqli yetmasligi tabiiy.

N. “G‘.S.” devonida hazrat Payg‘ambarimiz (s.a.v.)ning laduniy ilm sohibi va ilohiy ramzlardan ogohliklariga ishora qiladi:

Tiling hamesha laduniy ulumig‘a notiq,
Mudom ko‘nglung ilohiy rumuzidin ogoh.

N. “N.M.”da *“laduniy ko‘z”, “laduniy nazar” va “laduniy ilm”* kabi so‘zlar vositasida avliyolarning g‘ayritabiiy holatlaridan xabar beradi. Abu Abdulloh Mushtahir Bobuniy shayxning I.L.ga ega bo‘lgani va o‘z davridagi olimlar b-n bahsda doimo g‘olib kelganini naql qiladi. Jumladan, Najmiddin Kubro haqidagi ma’lumotlarda o‘qiymiz: “...Bobo Farajni ko‘rdumki, kirdi va dedi: Tunokun manzili “ilm ul-yaqin”din o‘tting. Bu kun yana ilm boshig‘a borursen. Men dars tarkin tuttim va riyozat va xilvatqa mashg‘ul bo‘ldum. Ulumi laduniy va voridoti g‘aybiy ko‘rina boshladi”. I.L. doimiy riyozat, nafsni tarbiyalash natijasida Alloh taolo tomonidan ilhom etiladigan ilmdir. Bu ilmga erishish u-n nafs tazkiya, qalb tasfiya etilmog‘i lozim.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Ғиёс ул-луғот. Жилд 2. – Душанбе, 1988; Фарҳанги забони тожики. Жилд 1. – М., 1969; Комилов Н. Тасаввуф. – Т., 1998.*

N.K., E.O., Z.R.

ILMIY-TANQIDIY MATN – Adabiy matnshunoslikka oid tushuncha. Adabiy yodgorlikni o‘rganish, uning turli jihatlari haqida so‘z yuritish va xulosalar chiqarish u-n, eng avvalo, o‘sha asarning ishonchli, xatolar va kamchiliklardan xoli, sahih matniga ega bo‘lish talab qilinadi. Bunga asarning I.T.M.ini yaratish orqali erishiladi. I.T.M. tuzish deganda adabiy yodgorliklarning muallif variantini tiklash yoki unga imkon qadar yaqin bo‘lgan matnni tuzish anglashiladi.

I.T.M.ni tuzishda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan asosiy ish bu matn tarixini o‘rganishdir. Ma’lumki, o‘tmishda yaratilgan adabiy yodgorliklar bizga qo‘lyozmalar holida yetib kelgan. Ular turli darajada (ba’zilari ko‘p, ba’zilari kam, ayrimlari arzimas darajada) o‘zgarishlarga uchragan. Asarning barcha mavjud qo‘lyozma nusxalarini aniqlash, ularni qiyosiy o‘rganish asosida I.T.M. yaratiladi.

N. adabiy merosini keng miqyosda tadqiq etish boshlangandan so‘ng uning asarlarining ilmiy-tanqidiy nashrlarini yaratish zarurati yuzaga keldi. Bu yo‘nalishda olib borilgan ishlar natijasida bir qator asarlarning I.T.M.lari tuzildi. Atoqli n.shunos H.Sulaymon “X.M.”ning, ulkan matnshunos P.Shamsiyev “H.A.”, “F.Sh.”, “S.S.”, dostonlarining, M.Hamidov “S.I.”ning, Sh.Eshonxo‘jayev “L.T.”ning, I.Sulton “M.A.”ning, S.G‘aniyeva “M.N.”ning tanqidiy nashrlarini tayyorladilar. A.Kononov tomonidan “M.Q.”ning yig‘ma matni nashr etildi. Bu ishlar n.shunoslarning keyingi avlodi tomonidan davom ettirilmoqda. Yaqin yillarda tuzilgan I.T.M. lar sirasida “N.M.”ning H.Islomiy tomonidan tayyorlangan va chop etilgan nashrini, “M.” va “M.L.”ning Y.Tursunov, “Xam.M.”ning O.Alimov tomonidan tayyorlangan nashrlarini e’tirof etish mumkin.

Yuqorida qayd etilgan ishlarning barchasi bir xil ilmiy saviyada emasligiga, ularning ayrimlari borasida tanqidiy fikrlar ham bildirilganligiga qaramay mazkur nashrlar buyuk shoir va mutafakkirning adabiy merosini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ad.: *Ўзбек адабиёти тарихи. 5 томлик, 2-том. – Т., 1977; Лихачев Д.С. Текстология. М–Л., 1962.*

Q.E.

ILTIZOM (ar. − lozim bilmoq, zarur hisoblamoq) – so‘z takroriga asoslangan san’atlardan biri. Bunda shoir katta asarlarning muayyan qismida, kichik asarlarning esa har bayti yoki misrasida bir yoxud bir necha so‘zni takrorlab, o‘quvchi diqqatini ularga tortadi va bu b-n o‘sha so‘z (yoki so‘zlar) orqali ifodalanayotgan ma’noning muhimligini ta’kidlaydi. I.da fikr muayyan so‘z (yoki so‘zlar) atrofiga markazlashtirilib, shu orqali mazmun chuqurlashtiriladi. Chunonchi, N. quyidagi g‘azalining har bayti va misrasida “jon” va “jonon” so‘zlarini keltirish orqali butun bir g‘azalni I. san’ati asosiga qurgan.

Har labing o‘lganni tirguzmakda, jono, jon erur,
Bu jihatdin bir-birisi birla jonojon erur.

Jonim andoq to‘ldi jonondinki, bo‘lmas fahmkim,
Jon erur jonon emas, yo jon emas, jonon erur.

Bo‘lsa jonon bordurur jon ham, chu jonon qildi azm,
Jon ketib jonon bila, jondin manga hijron erur.

Jon manga jonon uchundur, yo‘qki jonon jon uchun,
Umr jononsiz qatiq, jonsiz vale oson erur.

Borsa jon, jonon yitar, gar borsa jonon, jon ketar,
Kimsaga jonon-u jonsiz umr ne imkon erur.

Xushturur jon-u jahon jonon bila, jonon agar,
Bo‘lmasa jon o‘ylakim, o‘lmas jahon, zindon erur.

Jonim ol, ey hajr-u, jononsiz manga ranj istama,
Chunki jononsiz Navoiy jonidin ranjon erur.

T. Zehniy e’not, muraddaf kabi so‘z takroriga asoslangan san’atlarni ham I. ko‘rinishlaridan deb hisoblaydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Зеҳний Т. Санъати сухан. – Душанбе, 1967; Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Т., 1979; Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Т., 2001.*

E.O.

ILTIFOT (ar. − alanglamoq, bir holatdan ikkinchi holatga o‘tmoq) – tasvirda ifodalilikni kuchaytirish, ta’sirchanlikni oshirish maqsadida shaxsga murojaatni o‘zgartirib turishga asoslangan ma’naviy san’at. Muallif o‘quvchi e’tiborini o‘ziga jalb qilish, uning his-tuyg‘usiga ta’sir ko‘rsatish u-n ovoz maromini keskin o‘zgartirib, I shaxsdan II shaxsga, undan III shaxsga o‘tadi yoki aksincha. Bunda ko‘pincha undov so‘zlaridan foydalaniladi. Atoulloh Husayniyning “Mutavval” asariga tayanib, ma’lumot berishicha, “iltifot insonning o‘ngdan so‘lga va so‘ldin o‘ngga iltifotidin, ya’ni qaramog‘idin oling‘andur. Atash vajhi oxirgi ikki ma’noga ko‘ra budur: iltifot lug‘atta alanglamoqtur va so‘zlaguchi maqsaddagi ma’no keynidin anga taalluqlug‘u nisbati bor o‘zga ma’noni yoki gumonni yo‘q qilg‘uchi bir nimani keltirar ekan, ul ma’nog‘a iltifotu nazar qilur”. Shams Qays Roziyga ko‘ra, shoir maqsadini bayon qilib bo‘lgach, boshqa bir ma’noga ishora qiladi, u har qancha mustaqil bo‘lmasin, avvalgisi b-n bog‘liq bo‘ladi.

Shayx Ahmad Taroziyning yozishicha, I. ikki xil bo‘ladi: birinchisi – “muxotabadin mug‘oyibag‘a bormoq yo g‘aybdin xitobqa kelmoq”, ya’ni murojaat shaklini o‘zgartirmoq; ikkinchisi − “so‘zni tamom qilg‘ondin so‘ngra masal tariqi birla yo duo, yo bir latifa birla iltifot qilurlar”. Atoulloh Husayniy esa uning 6 xil ko‘rinishini sanab o‘tadi: 1) so‘zlovchidan tinglovchiga ko‘chmoq; 2) tinglovchidan so‘zlovchiga ko‘chmoq; 3) so‘zlovchidan b.ga ko‘chmoq; 4) b.dan so‘zlovchiga ko‘chmoq; 5) so‘zlovchidan o‘zgaga b. ko‘rinishda ko‘chmoq; 6) shuning aksi.

N. ijodida I. san’atining barcha ko‘rinishlarini uchratish mumkin. M-n:

Isyoni ko‘p Navoiyning-u yo‘q uyotikim,
Istar yetishsa muncha xijolat bilan senga.

Bunda fikr III shaxsdan II shaxsga ko‘chmoqda.

Quyidagi baytda esa fikr III shaxsdan II shaxsga ko‘chib, keyin yana II shaxsdan III shaxsga ko‘chmoqda:

Gar Navoiy so‘z uzatti faqrdin ermas demang,
Bo‘lmag‘uncha hukm shohdin,
qayda bu jur’at anga?!

Mana bu baytda II shaxsga murojaat III shaxsga aylanadi:

Yuzi ko‘rundi, oching emdi zulfi silsilasin –
Ki, ul pari yana majnunmisol qildi meni.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға // “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2002, № 5; Шамси Қайси Розий. Ал-мўъжам. – Душанбе, 1991; Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъу-с-санойиъ (А. Рустамов тарж.). – Т., 1981; Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Т., 2001; Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т., 2006; Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2010.*

E.O.

INJIL – Hirotni suv b-n ta’minlaydigan anhor. “V.”da o‘zi hovli-joy qilgan Marg‘aniy ko‘shki haqida gapirar ekan, N. “shahr jonibidin Injil suvi oqarkim, “aynan tusammo Salsabil” (Salsabil chashmasining ayni o‘zi) zulolidek tabiat komiga yoqar” deb yozadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Вақфия. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ўзбек адабиёти тарихи. 5 томлик, 2-том. – Т., 1977.*

M.A.

INOYAT NISHONI – hukmdor yorlig‘i, farmoni, farmoyishi. I.N. atamasi ko‘p hollarda shoh tomonidan biron kishiga ko‘rsatilgan inoyat, ya’ni uning yuqori mansabga tayinlanishi, unga yuksak unvon yoki alohida imtiyozlar berilishi munosabati b-n chiqarilgan farmon va berilgan yorliqlarga nisbatan qo‘llangan. Shu b-n birga bu atama boshqa farmonlarga, ish yuzasidan berilgan farmoyishlarga, shoh va shahzodalardan kelgan maktublarga nisbatan ham qo‘llangan.

“M.”da shohning N.ga ko‘rsatgan inoyati va shu xususda yuborilgan yorliq munosabati b-n yozilgan maktub mavjud. Unda shoir o‘zi borasida chiqarilgan I.N.ni olgani haqida xabar qiladi hamda minnatdorchiligini izhor etadi. Maktub boshidan quyidagi ruboiy o‘rin olgan:

Ham charx bisoti arsayi borgahing,
Ham oy jirmi na’li samandi sipahing,
Ham kun sipari qazo o‘qidin panahing,
Yo‘q-yo‘q, bu charx-u oy-u kun xoki rahing.

Shundan so‘ng shoir yozadi: “Qulluq duodin so‘ngra arzadosht ulkim, inoyat nishonikim, tug‘rosi uchun quyosh oltunini falak sadafida hal qilib erdi va muhri uchun Mushtariy yuziga humoyun alqob yozilib erdi – yetishti. Chun ul oliy misolni boshimg‘a qo‘ydum – martabada boshim quyoshdin o‘tti va saodatda yuzum Mushtariy yuzig‘a yetti”.

Mazkur jumlalardagi “inoyat nishoni”, “tug‘-ro”, “muhr”, “alqob” so‘zlari rasmiy yorliq, farmon to‘g‘risida ketayotganini ko‘rsatib turadi. O‘sha davrdagi qoidaga ko‘ra, shohning har bir farmoniga uning tug‘rosi va muhri bosilgan va alqobi yozilgan. Bundan tashqari biron kishiga mansab, unvon yoki imtiyozlar berilishi haqidagi I.N.lari b-n bog‘liq yana bir udum, qoida ham bo‘lgan: yorliq b-n birga qimmatbaho faxrli libos, belbog‘ yoki kamar, yasatilgan ot va boshqa tuhfalar berilgan. Maktubdagi so‘zlardan ma’lum bo‘ladiki, N.ga ham farmon b-n birga sovg‘alar yuborilgan. Xatda shoir ularning har biri xususida alohida to‘xtaladi va chiroyli lutf

qiladi. Jumladan, yuborilgan shohona xil'at haqida shunday deydi: "Shohona xil'atlar mujibi ul bo'ldikim, qulluq kisvatin bir-biri ustiga kiygaymen..."; fo'ta (belbog') haqida: " ... va mukarrar fo'ta boisi ul bo'ldikim, qulluqqa belimni ikki yerda bog'laymen..."; ot haqida: "... va yaxshi ot bila olam aro yaxshi ot chiqorg'aymen"; nafis matolar haqida: "va nafis raxt bila sipehr atlasig'a bosh indurgaymen".

N. o'z maktublaridan birida ish yuzasidan yuborilgan farmoyishni ham "I.N." ataydi: "Qulluq arzadosht ulkim, yiborgan inoyat nishonida Samarqanddin qochib kelgan kishi bobida so'zlar bitilib erdi".

Ad.: *Алишер Навоий. Муншаот. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Эргашев Қ. Ўзбек насрида иншо. – Т., 2011.*

Q.E.

INTOQ (ar. − nutqli; gapirish, so'zlatish) − insondan boshqa jonli va jonsiz narsalarni so'zlatishga asoslangan badiiy san'at. Xalq og'zaki ijodiga xos bu qadimiy san'at yozma adabiyotda keng qo'llanilgan. Xususan, majoziy uslubdagi va munozara tipidagi asarlarda bu san'atdan mahorat b-n foydalanilgan. "Devonu lug'otit turk"-dagi "Qish va bahor", Sulaymon Boqirg'oniy ijodidagi "Nafs va Ruh", Amiriyning "Chog'ir va Bang", Yaqiniyning "O'q va Yoy", Ahmadiyning "Sozlar", Nishotiyning "Boz va Bulbul", "Daf va Gul", "Nay bilan Shamshod", "Kosai Chinni va Nargis", "Binafsha va Chang", "Qushlar munozarasi", Hamzaning "Mevalar mojarosi" munozaralari, Fariduddin Attorning "Mantiq ut-tayr", N.ning "L.T", Nishotiyning "Husn va Dil" dostonlari shular jumlasidandir. I. muallifga o'zining olam va odam b-n bog'liq falsafiy fikr-mushohadalari, tuyg'u-kechinmalarini turli majoziy timsollar orqali majoziy uslubda bilvosita ifodalash u-n keng imkoniyatlar yaratadi.

N. o'z ijodida I. san'atidan ham mahorat b-n foydalangan. "L.T." boshdan-oyoq mazkur san'at asosida yaratilgan bo'lsa, boshqa dostonlaridagi rivoyatlarda ham uning yorqin namunalarini ko'ramiz. She'rlarida ham tashxis b-n birga I. san'atining ham betakror ko'rinishlari mavjud.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Т., 2001; Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т., 2006; Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2010.*

E.O.

IMOD FAQIH KIRMONIY (1310–1371, Kirmon) − fors-tojik shoiri. Kirmon, Sheroz va Yazd madrasalarida tahsil olgan. Shayx Ozariy "Javohir ul-asror" ("Sirlar javohiri") va Davlatshoh Samarqandiy "Tazkirat ush-shuaro" ("Shoirlar tazkirasi") asarlarida uning fazl-u donishi va shoirlik mahoratiga yuksak baho berganlar. N.ning yozishicha, I.F.K. vajd-u hol sohibi bo'lib, samo' suhbatiga ko'p moyil ekan. Makka safari vaqtida Sherozga yo'li tushib, Hofiz Sheroziy b-n uchrashgan va uni duo qilgan, hajdan qaytgunicha shoirning shuhrati olamni tutgan emish. I.F.K. sermahsul shoir bo'lib, undan 6 masnaviy va bir she'rlar devoni qolgan. Devon 16 ming bayt she'rni o'z ichiga oladi. Dostonlari: 1) "Tariqatnoma", 2) "Safonoma", 3) "Suhbatnoma", 4) "Muhabbatnoma", 5) "Dahnoma" ("O'n noma"), 6) "Tuhfat ul-ixlos" ("Ixlos tuhfasi"). Ularning barchasi irfoniy mavzuda. Ijodiy merosida g'azal asosiy o'rin tutadi. 26 qasida va 107 ta ruboiysi mavjud. E.Ochilov ruboiylaridan namunalar tarjima qilgan.

Ey dil, tariqating-ku mardonalig'-ey,
Bas, nega ishing eldan begonalig'-ey?

Suhbat etagidan olma talab qo'lini,
Yolg'iz yurishing boisi devonalig'-ey...
Biz birla falak qilmasa jang, bo'lg'ay ajab,
Yog'dirmasa boshimizga sang, bo'lg'ay ajab.

Mufti nega may qildi xarid bangni sotib?
Masjidda agar bo'lmasa bang, bo'lg'ay ajab.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик. 10 жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988; Адабиёти форсу тожик дар асрҳои XII–XIV. Қисми II. – Душанбе, 1983; Имод Фақиҳ Кирмоний. Рубоийлар // Донишмандлар туҳфаси. – Т., 2009.*

E.O.

IMOMLAR I. (birligi – imom; ar. ko‘pligi – aimma;) – Peshvolar; imomatlik qiluvchilar, namozda oldinda turuvchilar (Namozda boshqalar shu kishiga ergashadilar – iqtido qiladilar).

N. “M.Q.”ning o‘n to‘qqizinchi faslida I. haqida fikr bildirib, ularning xudbini va haqiqiysi; ularga xos odoblar haqida to‘xtalib o‘tadi. I.larning riyokori va xudbini “o‘z qiroatining sheftasi” va “o‘z namozining fireftasi”, “kishilikdin xayolida tasavvurlar va yaxshilikdin zamirida takabburlar” bo‘lgan kishilardir. Chiroyli qiroatini elga yoqimli bo‘lish deb biladi, uning jamoat ichida xudbinlik qilishi ayni rasvolikdir, nafsi xalqqa peshvolikni va elni o‘ziga iqtido qilish (ergashtirishni) istaydi. “Namozg‘a imomat komil imom ishidur va o‘zni mundoq tasavvur qilg‘on johil va notamom kishidur”. N.ning yozishicha, “...pirdin murid xaylig‘a tafhim uchun yo muallimdin suruki tifli norasidag‘a ta’lim uchun yo olimdin juhholg‘a shafqat uchun. Yo komildin tavobe’ va iyolg‘a tarbiyat uchun” imomlik qilish to‘g‘ridir. Lekin bunday I. “ibodat odobini aynan shariat qoidasiga binoan o‘rgatmog‘”lari kerak. Ammo “...topshiriq bermoq va ulufa (maosh) yemak va o‘zini peshvo deb bilmoq” mumkin emas. ...va bunday kishilarni, odamiy, fazilatli deb bo‘lmaydi: “Va ahli ma’nilar bunday kishini odam deb bilmaydi”.

Ad: *Алишер Навоий. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 6 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2023; Навоий асарлари луғати. – Т., 1972; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва таъбироти ирфони. – Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.); Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005.*

S.R.

IMOMLAR II – I. Islom dinidagi to‘rtta asosiy sunniy mazhabning asoschilari. Ular quyidagilar:

1. Imom A’zam – asl nomi Abu Hanifa Nu’mon binni Sobit (669–667). Hanafiylik mazhabining asoschisi.

2. Imom Shofe’iy – shofe’iylik mazhabiga asos solgan. To‘liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Idris ash – Shofe’iy (767–820).

3. Imom Ahmad Hanbal – hanbaliylar mazhabini yaratgan. To‘liq oti Ahmad ibn Muhammad bin Hanbal ash – Shayboniy (780–855).

4. Imom Molik – molikiylar mazhabining asoschisi. To‘liq ismi Abu Abdulloh Molik ibn Anas al-As’hobiy (713–795).

N. “N.M.”da bu to‘rt imom haqida ma’lumot bergan, ularning faoliyati, islom tarixidagi o‘rni haqida to‘xtalib o‘tgan. Tazkirada Imom A’zamga shunday tavsif berilgan: “Alarkim, imom ahlining imomidurlar, el ta’rifidin mustag‘niydurlar”. N.ning yozishicha, Imom A’zam “sunnatlarni tirg‘uzuchi” sifatida zohir qilingan. Imom Shofe’iy haqida so‘z borganda, uning ulkan bilimi va fazl-u kamoli alohida ta’kidlanadi. Bu bilimlarni u juda yoshlik paytida egallagan va o‘n uch yoshida odamlarga “Mendan istagan narsangizni so‘rang”, – degan. “O‘n besh yoshida fatvo javob aytdi”, – deya N. uning noyob qobiliyatini qayd etadi.

Imom Ahmad Hanbal haqida N. quyidagilarni qayd etgan: “Sunnat va jamoatning shayxi va din-u davlatning imomi erdi”. Asarda berilgan ma’lumotlarga ko‘ra, Bag‘dodda mu’tazila g‘alaba qilganda Imom Ahmad Hanbaldan Qur’oni Karimni maxluq deyishni talab qilganlar. Imom rad qilgan va qiynoq hamda azoblarga solingan.

Shuningdek, N. Imom Molik xususida ma’lumot bergan, Muhammad (s.a.v) ummatlarining

to‘rtdan bir ulushi Imom Molik mazhabida ekanini, ular orasida “oliyqadr mashoyix va ulamo” borligini qayd etgan.

II. Ulkan diniy olimlar va arboblar: Imom Buxoriy, Imom Muslim, Imom Hasan va h.k.

III. Hazrat Ali va uning 11 avlodi, jami 12 kishi (f-t: duvozdax imom). Ular shia mazhabida muqaddaslashtirilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Носириддин Бурхониддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. – Т., 1992; Ислом энциклопедияси. – Т., 2017.*

Q.E.

IMOM RIZO RAVZASI / BOG‘I – Mashhad (Eron davlatida joylashgan shahar)dagi me’moriy yodgorliklar majmuyi XII–XIX asrlarda bunyod etilgan bo‘lib, hozirda “Imom Rizo ansambli” deb yuritiladi. Bu ravza eski hovli, N. ayvoni, yangi hovli, Imom Rizo maqbarasi, Gavharshodbegim masjidi, madrasa, kutubxona, karvonsaroy va boshqalardan iborat. Majmua 2 marta qayta tiklangan. Markazida shialarning 8-imomi Ali ibn Muso ar-Rizo maqbarasi joylashgan (IX asrda bunyod etilib, XII asrda Oljeytu sultoni hukmronligi davrida gumbazi qaytadan barpo qilingan). 4 hovlidagi katta ayvonlar (janubi-g‘arbiy qismi (uzunligi 46 m.) N. boshchiligida XV asr oxirida qayta qurilgan va o‘z ko‘rinishini o‘zgartirgan), Shoh Abbos II ayvoni (1649), Gavharshodbegim sharafiga qurilgan masjid joylashgan va u eshik orqali maqbara b-n bog‘langan.

Mashhur tarixchi Xondamir “Makorim ul-axloq” asarida N. tomonidan qurdirilgan xonaqohlar haqida birma-bir bayon etar ekan, quyidagilarni yozib qoldirgan: “Muqaddas Mashhad shahridagi Razaviya maqbarasi (uning sohibiga salomlar va tahiyatlar bo‘lsin) hovlisida qurilgan “Dor ul-huffoz” [imorati]: Ushbu imorat lojuvard va oltin bilan islimiy va xitoycha naqshlar va tasvirlar vositasida g‘oyatda hashamat va dabdaba bilan bezatilgan. Bundan tashqari, o‘sha tabarruk maqbara hududida o‘ta hashamat va benihoya zeb-ziynat bilan bir ayvon bino qilingan”. Tarixiy manbalarda maqbara ulug‘vorligi jihatidan Samarqand va Hirot maqbaralari b-n tenglashtirilgan: “...shuningdek, u yerda N. tomonidan bir musofirxona ham qurilgan bo‘lib, har kuni unda qashshoqlar, muhtojlar va yetimlarga taom ulashiladi”.

Ad.: *Хондамир Ғ. Макорим ул-ахлоқ. (Форс тилидан К.Раҳимов таржимаси). – Т., 2015; Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий. Манбаларнинг қиёсий-типологик, текстологик таҳлили. – Т., 2011; Абдуқодиров А. Амир Алишер Навоий. Ҳаёти ва ижоди. – Хўжанд, 2023.*

Ab.A.

IMOMNAZAROV Muhammad Sultanovich (1942, Qo‘qon) – sharqshunos-adabiyotshunos olim. F.f.d-ri (1989), prof. (1993). Toshkent davlat universitetining sharqshunoslik fakultetini tugatgan (1966). I.M.S.ning ilmiy faoliyati, asosan, Amir Xusrav Dehlaviy ijodi, milliy ma’naviyatimiz tarixi va nazariyasini o‘rganishga bag‘ishlangan. Shu mavzularda “To‘qqiz osmon yulduzlari” (1989), “Milliy ma’naviyatimizning takomil bosqichlari” (1996), “Milliy ma’naviyatimiz nazariyasiga chizgilar” (1998), “Milliy ma’naviyatimiz asoslari” (2001, to‘ldirilgan qayta nashri – 2006), “Milliy taraqqiyotning ma’naviy-axloqiy asoslari” (2005), “Akademik Azizxon Qayumov maktabi” (2009), “IX–XV asrlar fors mumtoz she’riyati” (2013), “Fors mumtoz she’riyati badiiyatshunosligi va janrlar tipologiyasi” (2015), “Shoir so‘zining latofati va qadri” (2016) kitoblari va qator maqolalari nashr etilgan.

I.M.S. butun ilmiy faoliyati davrida N. ijodiga alohida ahamiyat berib kelmoqda. Olimning 1985-y.dan beri matbuotda ushbu mavzuda 40 dan ortiq maqolalari nashr etilgan. 2015-y.da “Navoiyshunoslikka kirish” nomli tadqiqoti bosilib chiqdi.

I.M.S. prof.lar A.Quronbekov va A.Mannonov b-n hamkorlikda N. asarlari to‘liq kon-

kordansini tuzish va tadqiq etish ustida faol ish olib bormoqda. Hozirga qadar “X.” tarkibidagi “H.A.”, “F.Sh”, “L.M.”, “S.S.” dostonlarining konkordanslari tuzatilgan tanqidiy matnlari b-n xalqaro transkripsiyada nashrdan chiqqan.

Ad.: *Имомназаров М. Миллий маънавиятимиз асослари. – Т., 2001; Навоийшуносликка кириш. – Т., 2015.*

S.O‘.

IMON / IYMON (ar. – ishonch, e’tiqod, tasdiq etmoq, ishonmoq) – Islom dinida Allohga, uning farishtalari, kitoblari, payg‘ambarlari, qiyomat kuni, taqdir va o‘lgandan keyin tirilishga ishonish. I. keltirgan odam mo‘min deyiladi. Qur’on va hadislarda iymon b-n bog‘liq ko‘plab ko‘rsatmalar, tavsiyalar va talablar bor. I. Alloh taolodan kelgan Haq dinga ishonishdir. Ya’ni, Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning Alloh tarafidan yetkazgan barcha hukmlarini dil b-n tasdiqlab, til b-n iqror qilishdir. Kishi Allohning birligi va Muhammad (s.a.v.)ning haq payg‘ambar ekaniga iqror bo‘lish b-n iymonini izhor etadi. Islomiy nuqtayi nazardan I. uchga bo‘linadi: 1. Tahqiqiy – shak-shubhadan xoli bo‘lgan iymon. 2. Istidloliy – dalillarga asoslangan iymon. 3. Taqlidiy – ota-ona iymoniga taqlid qilingan iymon.

I. ifoda jihatidan ikkiga bo‘linadi:

1. Mufassal iymon. Ya’ni “Allohga, uning farishtalariga, kitoblariga, payg‘ambarlariga, qiyomat kuniga, taqdirga – yaxshilik va yomonlik Allohning xohish-irodasi b-n bo‘lishiga va o‘lgandan keyin qayta tirilishga iymon keltirdim”, – demoq.

2. Ijmoliy (muxtasar, qisqa) iymon. “Allohga uning ismlari va sifatlariga iymon keltirdim va Uning barcha hukmlarini qabul qildim”, – deb aytishdir.

I.ning talablari, ya’ni aqidalar islomning diniy dunyoqarash asoslarini tashkil etadi. Islomda I.ning rukni va sharti bor. I. keltirish lozim bo‘lgan narsalarni qalb b-n tasdiqlab, qabul qilish va til b-n iqror bo‘lish iymonning ruknidir. Bunga “arkon al-imon” (ishonch, e’tiqod asoslari) deyilgan. Qalb b-n tasdiqlab, qabul qilish lozim bo‘lgan narsalar esa iymonning shartlaridir. I. masalasi qalbga taalluqli bo‘lgani u-n ular aqida masalalari deb ham ataladi. E’tiqodni to‘g‘rilash, sof aqida ta’limotiga amal qilish musulmon u-n o‘ta muhimdir. So‘fi Olloyor aytganidek:

Aqida bilmagan Shaytona eldur,
Agar ming yil ibodat qilsa yeldur.

I. b-n bog‘liq fikr-u qarashlar, ayniqsa, “H.A.”, “A.”, “S.M.”, “M.”, “N.J.”, va “M.Q.”da yaqqol namoyon bo‘ladi.

N. “H.A.”ning birinchi maqolati bo‘lgan “Imon sharhidakim, “Al-imonu an tu’minu billahi va maloikatihi va kutubihi va rusulihi va bil-yavmil-oxiri va bil-qadari xayrihi va sharrihi” manzumasini quyidagi misralar b-n boshlaydi:

Kimki jahon ahlida inson erur,
Bilki nishoni anga imon erur.

Demak, kimki bu jahonga inson bo‘lib kelgan ekan, uning belgisi – iymondir. Payg‘ambar (s.a.v.) aytgan ekanlar, sabr, shukr va hayo iymonning lozim narsalaridan, kimki iymon b-n ziynatlangan bo‘lsa, uni inson desa bo‘ladi. N. “Alloh kalomi”da xabar berilganidek insonlar yaxshi-yomonga ajralishini, yaxshilar I. b-n sharaflanishini eslatib o‘tadi. So‘ngra I. olti qismdan iborat. Kim bu olti to‘siqqa ega bo‘lsa, ular har bir kishini olti jihatdan himoya qiladilar, deydi va Allohning birligi, farishtalar, samoviy kitoblar, payg‘ambarlar, qiyomat kuni va taqdir tushunchalarini sharhlab, ularga iymon keltirish zarurligini uqtiradi.

N. “S.M.” asarida I. masalasiga yanada ochiqroq va batafsilroq to‘xtalib o‘tgan. I. qoidalari, iymon keltiriladigan narsalar, Allohning sakkiz sifati, bundan tashqari aqidaga daxldor va musulmon odam haq deb bilishi kerak bo‘lgan: qabr azobi, qabrda Munkar-Nakir degan ikki farishtaning savol berishi, Sirot ko‘prigi, amallar

tortiladigan tarozi, do‘zax, jannat, Hazrat Payg‘ambarimiz (s.a.v.)ning shafoatlari, payg‘ambarlar mo‘jizasi, avliyolar karomati haqida ma’lumot bergan.

N. I.ni sharhlash b-n birga o‘z asarlarida mo‘minga xos sifatlarni, odob-axloqni ham ko‘rsatib o‘tadi. “A.”da “Mo‘min kishi o‘ziga ravo ko‘rgan yaxshiliklarni to qardoshiga ham ravo ko‘rmas ekan, u haqiqiy mo‘min bo‘lolmaydi” hadisi quyidagicha she’rga solingan:

Mo‘min ermastur, ulki iymondin
Ro‘zgorida yuz safo ko‘rgay,
Toki qardoshig‘a ravo ko‘rmas –
Har nekim o‘ziga ravo ko‘rgay.

Shuningdek, shoir mazkur asarida mo‘minlarni saxovatga, mehr-oqibatga undaydigan: “Mo‘min kishi qo‘shnisi och bo‘laturib, to‘ymaydi (to‘q bo‘lolmaydi)” hadisiga ham munosabat bildirgan:

Kimki mo‘mindurur qachon chidag‘ay,
Kim o‘zi to‘q-u qo‘shni bo‘lg‘ay och.
Anga dog‘i kerak yetursa nasib,
Xonida gar kuloch-u xohi umoch.

N. “N.J.” asarida Hazrat Ali (r.a.)ning mo‘min sifatlariga xos bo‘lgan bir qator hikmatli so‘zlarini keltirar ekan, “Kishining iymoni ahdiga vafo qilishidan bilinadi”, hikmatini o‘zbekchaga shunday o‘girgan:

Iymoni aningki kufrig‘a sotir erur,
Chin nukta demakka ul kishi qodir erur,
Har kimsaki iymon ishida mohir erur,
Iymonini bilki, otidin zohir erur.

N. “N.M.” muqaddimasida hazrat Payg‘ambarimiz (s.a.v.) haqida: “U zot tufayli zamon ahliga iymon sharofati yetishdi”, deydi. Bu o‘rinda “iymon sharofati” kengroq ma’noda islomning tarqalishi, musulmonchilikning yoyilishiga dalolat qiladi.

N. “N.M.”da Mavlono Muhammad Tabodgoniydan “Iymon ikki bo‘lakdan iborat, yarmi sabr, yarmi shukr”, degan hadis eshitganini xotirlatib o‘tgan.

Musulmon odam u-n I. bu dunyo u-n ham, oxirat hayoti u-n ham muhimdir. “Iymon bilan o‘lmoq”, “Iymon bilan ketmoq” “Iymon bilan jon bermoq”, “Husni xotima” (yaxshi o‘lim topmoq) kabi iboralar islomiy kitoblarda uchraydi. N. “B.V.” devonidagi bir g‘azalida o‘lim b-n bog‘liq holatlarni tasvirlab, Yaratuvchidan so‘nggi nafasda I. b-n jon berishni so‘raydi:

Naqdi jon chiqqanda imon gavharin
ko‘nglumga sol,
Aylagil jondin judo, lek etma imondin judo.

N.ning ishqiy g‘azallarida I. so‘zi oshiqning turli holat va kayfiyatlarini ifodalab kelgan. G‘azallardan birida shoir aytadiki, zunnor iplarining orasida tasbeh torlarining bo‘lishi maqbul bo‘maganidek, ishq yo‘lida kofir bo‘lgan, (Haqdan boshqasini inkor etgan) va jonini qurbon qilgan oshiqning iymon so‘zini aytishiga hojat yo‘q:

Kofiri ishq o‘lg‘an avlo demasa iymon so‘zin,
Xo‘b emas tasbih tori rishtayi zunnor aro.

Ad.: *Алишер Навоий. ТАТ. 10 жилдлик, 1-10-жилдлар. – Т., 2011; Турсун А.М., Жуман М.Ш. Ислом дини. – Т., 2013; Сўфи Аллоҳёр. Маслак ул-муттақин. – Т., 2012; Абдулқодир Абдураҳим ўғли. Ақоид дарслиги. – Т., 2007.*

S.R.

IRODA (IRODAT) – istak, orzu, talab. I. Allohning sakkiz subutiy sifatidan biridir. Xalqning “Allohning irodasi” iborasi ham shu ma’noda ishlatiladi. N. ham Allohning ushbu sifatiga alohida e’tibor qaratib, “S.M.” asarida yozadi:

Kim ul sekkiz erur Haqning sifoti
Ki, boridin munazzah qildi zoti.

Erur Hayyu Alim-u yana Qodir,
Murid-u ham Sami' o'ldivu Nozir.

Takallum vasfig'a dag'i muvofiq,
Yana ibod af'olig'a Xoliq.

N. I. sifatini murid deb beradi. Allohning Murid sifatidan paydo bo'lgan sayr-u sulukdagi murid esa tom ma'noda murshidga, u orqali Rasulullоh (s.a.v)ga va Allohga irodasini taslim etgan solikdir. Qur'oni Karimda ikki turli: Takviniy va Tashriiy iroda tilga olinadi. "Allohning istagi "Bo'l" deyish bilan amalga oshishi – takviniy I.dir. Tashriiy yoki diniy I. esa qullariga fano bo'lishga ixtiyor bergan Allohning amriga muhabbat hamda rizo ila bo'ysunishdir. I. haqiqat da'vatiga munosib javob bergan qalbdagi sevgi otashi va himoya, deya izohlaydi Ibn Arabiy. N. ijodida bu mazmundagi baytlar ko'p. M-n:

Agarchi yo'q talabingdin dame qaror manga,
*Irodat emgagidur bu, ne ixtiyor mang*a.

Tariqatda fayz masalasiga ko'p e'tibor qaratiladi. N. esa fayz-u futuh olish I. tufayli ekanini ta'kidlagan:

Fayz irodatdin yetar, parvoz etib ul yer tutar,
Chun Nabiyi sori xayol ichra Najoshiy evrulur.

Nubuvvatning oltinchi yilida Habashiston podshohi Najoshiyga Payg'ambarimiz (s.a.v.) maktub yo'llaydilar va u musulmon bo'ladi. N. mana shu hodisaga ishora qilish orqali I.ning muhimligini ta'kidlamoqda. "N.M." tazkirasida I. va I. ahli masalasida fikrlar bildirilgan: "Abubakr Varroq do'stlarini safar va sayohat qilishga da'vat etmasdi. Aytardiki, irodat qilgan yeringda muridliging kamolga yetguncha sabr qilib turishing barcha barakotning kalitidur. Muridlik kamolga yetgach barakot boshlanadi". N. tariqat borasidagi nazariy qarashlarni ham o'rtaga tashlaydi. Jumladan, xirqa masalasida: "Biri irodat xirqasi va ani bir shayxdin o'zgadin olmoq ravo ermas va yana biri tabarruk xirqasi. Va ani ko'p mashoyixdin tabarruk uchun olmoq ravodur", – fikrini keltiradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Сирож ул-муслимин. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Najmiddin-i Daye. Sufilerin seyri. – Istanbul: 2013; Раҳмонова З. Ишқ, ирфон ва иршод. – Т., 2021.*

Z.R.

IROQ – tarixiy-jug'rofiy tushuncha. O'rta asrlarda G'arbiy Eron va Mesopotamiyani (Dajla va Frot daryolari oralig'ini) o'z ichiga olgan yerlar shunday deb atalgan. O'rta asr adiblari va olimlari bu hududning ikki qismini bir-biridan farqlaganlar va G'arbiy Eron yerlariga nisbatan I. Ajam, qolgan yerlarga nisbatan I. Arab atamasini qo'llaganlar. Shu b-n bog'liq ravishda Iroqayn, ya'ni Ikki I. istilohi ham paydo bo'lgan. N. hayotining yoshlik davridagi bir necha yil I.da o'tgan. Shohrux mirzo vafotidan so'ng boshlangan o'zaro urushlar va to's-to'polonlar sababli Alisherlar oilasi I.qa ketishga majbur bo'lgan edi. Yosh Alisher I.ning Taft shahrida Sharafiddin Ali Yazdiy b-n uchrashgan va bu haqda o'zining "M.N." tazkirasida hikoya qilgan.

I. N. asarlarida ko'p tilga olingan. Shoir bu nomni asosan Oqquyunlilar imperiyasiga nisbatan qo'llaydi. "M."da Badiuzzamon mirzoga yozgan xatida u ana shu davlatda bo'layotgan voqealardan xabardor bo'lib turishini tavsiya qilar ekan, "Iroq mamlakatig'a fahmlik, xushliq kishilar yuborib, doyim xabar tutula turulsa" deb yozadi. N. I.dagi madaniy-adabiy hayotdan yaxshi xabardor bo'lgan. "M.N."da Iroqda yashab ijod qiluvchi Mavlono Humoiy, Mavlono Shahidiy, Mavlono Darvesh Dehakiy, Qozi Iso kabi shoirlar haqida ma'lumotlar berilgan. Uning I.da do'stlari ham bo'lgan. Oqquyunli hukmdori Sulton Ya'qubning yaqin kishilaridan Shayx Najm shulardan biri edi. N. "M.N."da u b-n g'oyibona do'st, og'a-ini tutunganliklari haqida quyidagicha

ma’lumot beradi: “Bu faqir bila dag‘i g‘oyibona muhabbat va yorliq va iniliq qoidasin mar’i tutti”.

N. I. va Xuroson (oqquyunlilar va temuriylar) davlatlari o‘rtasidagi munosabatlarda ham muhim rol o‘ynagan va bu ikki mamlakat o‘rtasida yaxshi qo‘shnichilikning o‘rnatilishiga hissa qo‘shgan. Bunda u b-n I. hukmdori Sulton Ya’qub orasida samimiy, iliq munosabatlar bo‘lgani katta yordam bergan. Xususan, N. Astrobodda bo‘lgan vaqtida bu munosabatlar mustahkamlangan. N.ning ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarda muhim o‘rin tutgani tarixiy hujjatlarda (Sulton Husayn Boyqaroning Sulton Ya’qubbekka xati va o‘sha davrda yaratilgan tarixiy asarlarda) qayd etilgan.

I. nomi N. lirikasida ham uchraydi. U ikki xil ma’noda qo‘llanadi.

1. Jug‘rofiy atama, mamlakat nomi:

Navoiy o‘lmasig‘a ozimi Iroq-u Hijoz,
Magor nazohati mulki Hiriy erur bois.

2. Kuy nomi:

Ey mug‘anniy, tut Iroq ohangi-yu ko‘rguz Hijoz,
Kim Navoiy xotiri bo‘lmish Xurosondin malul.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Муншаот. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

Q.E.

IRSOLI MASAL (ar. – masal (maqol) keltirish) – Sharq mumtoz she’riyatida eng ko‘p qo‘llangan badiiy san’atlardan bo‘lib, bu san’atning to‘liq nomi irsol ul-masal fil-bayti. I.M gapda yoki she’rda maqol, matal va hikmatli so‘zlarni muayyan maqsadda tamsil yo‘li b-n ishlatish san’atidir.

N. g‘azaliyotida, bir tomondan, yangidan jalb qilingan maqol, matal va hikmatli so‘zlarni ko‘plab uchratsak, ikkinchi tomondan, ularning xilma-xil maqsad uchun rang-barang uslubda ishlatilganini ko‘ramiz. Shuningdek, N.ning o‘zi ham hikmatli so‘z darajasiga yetgan ko‘plab bayt, misra va iboralar yaratgan.

She’riyatimiz tarixida maqol, matal va hikmatli iboralarning poetik maqsad u-n ishlatilishida, asosan uchta muhim xususiyat ko‘zga tashlanadi: 1. Mashhur maqol yoki hikmatli so‘zga ishora qilish. Bunda ko‘pincha “deydilarkim”, “derlar”, “masaldurkim”, “masal borkim” kabi so‘z va iboralardan foydalaniladi. M-n:

Yetti jon og‘zimgakim, chiqmas uyidin ul hur:
Chiqmagan jondin umid – ushbu
masaldur mashhur.

She’rda I.M. san’atidan foydalanishning ikkinchi usuli – hech qanday imo-ishorasiz maqol yoki hikmatli so‘zning aynan o‘zini keltirish. M-n:

Har kishikim birovga qozg‘oy choh,
Tushgay ul choh aro o‘zi nogoh.

Uchinchisi – vazn va qofiya talabi b-n maqollarni biroz o‘zgartirib qo‘llash. M-n:

Xo‘blar tig‘i yetishmastin burun bu zor o‘lar,
Chin emishkim: “Bo‘lsa ko‘p qassob,
qo‘y murdor o‘lar”.

Bu yerda: “Qassob ko‘p bo‘lsa, mol harom o‘ladi”, degan maqol she’riyat qoidalariga ko‘ra o‘zgarishga uchragan: vazn talabi b-n “bo‘lsa” fe’lining o‘rni almashgan; qofiya talabi b-n “harom” so‘zi o‘rniga “murdor” so‘zi qo‘llangan.

Ba’zan shoirlar ketma-ket ikki maqol keltiradilar. Bu – irsol ul-masalayn deyiladi. M-n, N. ning quyidagi fardi ikki maqol asosiga qurilgan: “Yomon bilan yurganga yomonlik yuqadi” va “Ko‘mirga tekkan qo‘lini qora qiladi”:

Yuqar yomonlig‘ angakim, kirar yomon el aro,
Ko‘mur aro ilik urg‘an qilur ilkini qaro.

Ma’lum bo‘ladiki, I.M. san’ati shoirga fikrini shaklan ixcham va qisqa, ayni paytda, mazmunan keng va teran; usluban aniq va lo‘nda, shuning barobarida, badiiy jihatdan go‘zal va yetuk ifodalashga imkon yaratibgina qolmay, she’rning ta’sir quvvatini oshirish, xalqchilligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға // “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2002, 4-сон; Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъус-санойиъ (А.Рустамов тарж.). – Т., 1981; Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т., 2006; Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Т., 2001; Зеҳний Т. Санъати сухан. – Душанбе, 1967.*

E.O.

IRSHOD (ar. – to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatmoq, yo‘llash) – Tasavvufda Haq yo‘liga kirish, tariqat maktablarida ta’lim-tarbiya olish. N. “N.M.”da irshod etuvchilar haqida: “Ulamo payg‘ambarlar vorisidirlar” ahodisi andin xabar berur va ul Hazratdin so‘ngra buzrugvor as’hobi rizvonullohi taolo alayhim ajma’in xaloyiqqa bu rahnamoylig‘ni bajo kelturdilar va Haq subhonahu va taolog‘a yo‘l ko‘rguzdilar va ul sohib davlatlardin so‘ngra bu ummatning mashoyixi va avliyoulloh (q.t.a.) bu irshodg‘a ishtig‘ol ko‘rguzdilar va va’da budurkim, olam inqirozig‘achakim, millat va shariat siyrati mustaqim bo‘lg‘usidur”, – deydi. Demak, I. etuvchilar Rasulullo (s.a.v.)ning sunnatini mahkam tutgan holda Haq yo‘lchiligini bosib o‘tib, Haqdan xalqqa qaytgan valiy zotlardir. I. silsilasi Muhammad (s.a.v.)ga ulanishi joiz.

Mumtoz adabiyotning bosh vazifasi insonni tarbiyalashdir. N.ning har bir asarida mana shu haqiqat mavjud. U nafaqat ijtimoiy-siyosiy faoliyati, balki har bir asari b-n insoniyatni I. etishni maqsad qilgan. She’riyatida his-tuyg‘u, kechinmalar hassosiyati orqali bayon qilsa, tazkiralarida valiylarning ibratli hayoti va hikmatli so‘zlarini keltirish b-n ta’sir o‘tkazadi. Devonlarida nafs tarbiyasida I.ning muhimligini obrazli ifodalaydi. M-n:

Shayx ila ahli riyo-yu dayri piri birla rind,
Kim, fano ichra keraktur pirning irshodi ko‘b.

Ayniqsa, “N.M.” tazkirasi, “L.T.” dostoni hamda “M.Q.” asarlari I. mazmun-mohiyatini ochib beruvchi asarlardir. “L.T.”da qushlarning ma’naviy safari orqali I.ning mazmun-mohiyatini ramziy-majoziy tarzda aks ettirsa, “N.M.”da irfoniy-nazariy tomonlaridan bahs yuritadi. “M.Q.” asarida Piri komilning I.i *Tavba, Zuhd, Tavakkul, Qanoat, Sabr, Tavozu’ va adab, Zikr, Tavajjuh, Rizo, Ishq* nomli o‘n tamalga asoslanishini aytib, ularning har biriga atroflicha izoh beradi. Nazariy qarashlarini ibratli hikoyatlar keltirish b-n to‘ldiradi. M-n, Boyazid Bistomiy va muridining suvdan o‘tishi haqidagi hikoyat beriladi. Shayx suv yuzida “Alloh” deya yurar ekan, muridiga “Boyazid” deb yurishini aytadi. Shunda yo‘l o‘rtasida shogirdning nafsida shayton o‘ralab, vositani oradan olay, pirimni emas, “Alloh” deya yo‘lda davom etay deyishi b-n suvga g‘arq bo‘la boshlaydi. N. bu hikoyatdan shunday ahamiyatli xulosasini beradi: “Maqsudki, pir irshodidin ayru bu yo‘lg‘a qadam urmamoq kerak, balki dam.

Ruboiy:

Kimniki, bu yo‘l qat’ig‘a soldi taqdir,
Pir amrini qilmasa, keraktur tag‘yir,
Onsiz qadam ursa, angla makr-u tazvir,
Mal’un desa behrakki, desalar bepir”.

N. asarlarida I. ahli murshid, pir, rahnamo va hokazo nomlar b-n bir qatorda *I.gar*, muridlar esa *I.mand* ham deyiladi. Shoirning har sohada ustozlari bo‘lib, ular haqida alohida e’tiroflari ham talaygina. Biroq I. etuvchi ustozlari sifatida, asosan, Abdurahmon Jomiy, Sayid Hasan Ardasher, Xoja Ahror Valiylar gavdalanadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер*

Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.

Z.R.

ISAJON SULTON (06.04.1967) – yozuvchi, publitsist, tarjimon, jamoat arbobi. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi (1996). Nasr kengashi raisi (2019). O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi (2014). O‘zbekiston xalq yozuvchisi (2021). Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri maslahatchisi (2022). I.S.ning shu kunga qadar “Munojot” qissasi (“Sharq yulduzi”, 1990), “Oydinbuloq” hikoyalar to‘plami (1995), “Boqiy darbadar” (2011), “Ozod” (2012), “Genetik” (2018), “Alisher Navoiy” (2021), “Ma’suma” (2022), “Bilga Xoqon” (2022) bir qator romanlari chop etilgan.

I.S. ijodida N. mavzusi alohida o‘rin tutadi: “Alisher Navoiy” romanida shoir yashagan temuriylar davri haqqoniy tarzda istiqlol mafkurasi asosida tasvirlangan, xususan, Sulton Husayn mirzo obrazi yangicha nazar b-n baholangan. Yozuvchi N. shaxsiyatini ochishda uning o‘z asarlari, memuarlari, Badiuzzamon mirzoga yozgan maktublaridan unumli foydalangan.

Muallif roman qismlarini N.ning “X.M.” (“Chor devon”) to‘plamidagi devonlar nomi b-n ataydi. Ya’ni romanning to‘rt qismi “G‘.S.” (birinchi qism), “N.Sh.” (ikkinchi qism), “B.V.” (uchinchi qism), “F.K.” (to‘rtinchi qism) deb nomlangan.

Qolaversa, I.S. romanining “Muqaddima” qismi mumtoz adabiyotimizdagi “hamd” va “na’tlar” kabi Allohning yaratuvchiligiga madhiya bitish b-n boshlangan. Yangi o‘zbek romanchiligida bu hali kuzatilmagan holat edi. Jumladan: “...Parvardigorim? U poyaga g‘ijim shoyi bo‘lib yaproq yozishini buyurding, yaprog‘ini yoygach, uni tekislading, beqiyos rang-u tus va ifor ato etding. Kunlar o‘tib, quyoshning tig‘iz harorati-yu kecha muloyimligi aro unga shunday ajoyib hayotni hadya qilding; so‘ng unga “So‘zla va menga hamd-u sano ayt!” desang, ularning bari so‘z aytish o‘rniga chaman-chaman gul ochib yuborishdi...

Inson bolasiga ham o‘xshashi yo‘q baxtlar ato etding, hayvon jasad ichra to‘lg‘in qalb yaratding, uni zavq-u hayratlarga, dard-u iztiroblarga, o‘ylar-u hikmatlarga oshno qilib qo‘yding, ko‘z ustiga yana bir ko‘z, quloq ustiga yana bir quloq, til ustiga yana bir til, yurak ustiga yana bir yurak berding va unga “So‘zla!” deding. Bularning barini bir “Bo‘l” degan hukming bilan qilding, qudratimdan qo‘rqishing, hayratlanishing, zavqlanishing ham maqtovingdir deding, ularga cheksiz qudratingdan san’atkorlikni ham hadya qilding. Son-sanog‘i yo‘q so‘zlarni o‘rgatding, har bir so‘zga bir tilsim jo aylab, bag‘riga o‘z dargohingdan qudrat jo aylading. Ne’matlaring beqiyos edi, shu ne’matni ham berding, buni nechun qilding, Parvardigorim?..”.

Adib “Alisher Navoiy” romanini va N. obrazini yaratishda tarixiy faktlarga, xususan, N. yashagan davr aks etgan tarixiy manbalar, memuarlarga suyanadi. Romanga Abdurahmon Jomiy, Lutfiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Sulton Husayn Boyqaro, Nizomulmulk, Majdiddin, Pahlavon Muhamamad, Sayyid Hasan Ardasher, Shayx Bahlul, Binoiy kabi yuzlab tarixiy shaxslar olib kirilgan.

I.S. roman matnida o‘sha davrga xos shohlar saroyi va shohona shon-shavkatni aks ettiruvchi yuzlab tarixiy istilohlar, harbiy, milliy kiyim-kechaklar, shaharlar, shaxslar, milliy taomlar va ichkiliklar, o‘simliklar va hayvonlar nomiga alohida e’tibor b-n qaragan.

Umuman, “Alisher Navoiy” romani til xususiyatlari b-n ham o‘ziga xosdir.

Ad.: *Исажон Султон. Алишер Навоий.– Т., 2021; Исажон Султон насри бадиияти. – Т., 2017; Исажон Султон. Асарлар. 1-жилд.*

Ҳикоялар. – Т., 2017; Исажон Султон. Асарлар. 2-жилд. Романлар. Қиссалар. – Т., 2017.

Sh.R.

ISAQOVA Zebo Murodovna – f.f.n., dotsent. 2010-y. “Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asaridagi ijtimoiy-siyosiy leksika” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan. Ishda ijtimoiy-siyosiy leksikaning genetik qatlamlari, mavzu guruhlari o‘rganilgan. Davlat boshqaruviga oid leksik birliklar quyidagi mavzu guruhlarga ajratilgan: a) davlat hukmdori va hukmdor vorislari nomlari; b) davlat idoralari va amaldorlari nomlari; v) saroy xizmatchilarini ifodalovchi so‘zlar. Ijtimoiy-siyosiy leksika geneologik jihatdan o‘z va o‘zlashma qatlamdan iborat ekani aniqlangan. Ijtimoiy-siyosiy leksika semantik jihatdan: a) shaxs otlarini yasovchi qo‘shimchalar b-n hosil bo‘lgan so‘zlar; b) mavhum ot yasovchi qo‘shimchalarga bo‘lib o‘rganilgan.

Ad.: *Исақова З. Алишер Навоийнинг “Мажолис ун-нафоис” асаридаги ижтимоий-сиёсий лексика. Фил.фан.ном... дисс. – Т., 2010.*

E.U.

ISYON – qarshilik, norozilik. I. lafzi qo‘llanganda, avvalo, Allohning amriga bo‘ysunmay mardud-u mal’un bo‘lgan shaytoni lain xotirga keladi. N. ham asarlarida bu voqeani bayon qilib, I. va u haqidagi tasavvurlarga oydinlik kiritadi. “L.T.” dostonidagi “Odam Safiy alayhissalom hikoyati”da:

Chunki taqdir etdi hayyi zuljalol,
Jurm-u isyon birla bo‘ldi tiyrahol.

Oncha rif’at birla ul masjudluq –
Ketti-yu bo‘ldi ish mardudluq.

Ko‘ksiga rad panjasin yetkurdilar,
Ravzayi jannatdin oni surdilar, –

deya, Iblisi lainning I.i aytiladi.

Odam avlodlari ham shayton kabi I. qiladilar. Ammo buning davosi tavbadir. Tavba natijasida Parvardigordan mag‘firat tilab, rizo maqomiga erishiladi:

Tavbadur oni oritmoqqa iloj,
Zulmati isyon aro budur siroj.

Shaytonning adovati, nafsning sarkashligi bor ekan, insonda I.ga moyillik bo‘ladi. I. zulm va istibdodga qarshi bo‘lmog‘i kerak, ammo solih qullar Alloh taoloning taqdiriga hamisha taslim bo‘ladilar. N. ham bir g‘azalida shunday deydi:

Hashr g‘avg‘osi aro osiylig‘img‘a rahm qil,
Lutf ila ilgim tutub qil ahli isyondin judo.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005.*

Z.R.

ISKANDAR (Skandar) – N.ning “X.M.” va “D.F.”ga kirgan lirik janrdagi asarlarida tez-tez ko‘zga tashlanuvchi obrazlardan biri bo‘lib, talmeh san’atini hosil qiladi. Ko‘p o‘rinlarda cheksiz boylik, tuganmas mol-u mulk egasi, baland sha’n-u shavkat, ulug‘ dabdaba sohibi sifatida talqin etiladi. M-n:

Gar Skandar mulki birla Xizr umrin bersalar,
Uyla mulk-u bo‘yla umri jovidondin kechkaman...

Taxting bo‘lsun sipehri axzar chog‘lig‘,
Mulkung bar-u bahr aro Skandar chog‘lig‘...

Har gadoyekim, jahonda bir muvofiq yori bor,
Xizr umrin Skandar hashmatidin ori bor!

Mana bu baytda esa I. dono va tadbirkor shaxs sifatida gavdalanadi. Ammo go‘zal ma’shuqa undan ham ustaroq, undan ham donoroq:

Xizrvash xat birla chun husnung
samandin surgasen,
Yuz Skandarni sug‘a eltib susiz
kelturg‘asen.

Baytda I.ning “obi hayvon” (hayot suvi)ni ko‘p qiyinchiliklar tortib topganida, icha olmay quruq qaytishi b-n bog‘liq rivoyatga ishora ham mavjud.

“F.K.”dagi g‘azallarning birida lirik qahramon jahongirlik yo‘liga kirgan, afsonaviy hayot suvi (“obi hayvon”) makoni bo‘lmish zulmat sari intilgan I.ga o‘zini zid qo‘yadi. Undan farqli o‘laroq va mulkiga talpinuvchi, g‘am shomi b-n qanoatlanuvchi *oshiq* sifatida gavdalanadi.

Skandarga jahon-u azmi zulmat
Ki, mulki ishq-u shomi g‘am mango bas!

“F.Sh.” dostonida N. “Iskandar” so‘zini nur, ziyo, jamol ma’nolarida qo‘llab, o‘ziga xos “quyosh Iskandari” obrazini yaratadi:

Chu zulmat ra’yati bo‘ldi nigunsor,
Quyosh Iskandari ko‘rguzdi ruxsor.

I., umuman, odil, saxovatli hukmdor ramzi. Quyidagi ikkinchi baytda xuddi shunday ma’noda ishlatilgan:

Iskandarni andoq karam ayladi,
Qolur otni andesha ham ayladi.

Bu nav’ o‘lsa kimda karam javhari,
Bugun uldur ofoq Iskandari.

N. asarlarida Sulton Husayn Boyqaro I.i Soniy, I.i zamon unvonlari b-n ham ulug‘lanadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-жилдлар. – Т., 2011.*

A.A.

“ISKANDARNING YETTI IQLIM MAMOLIKIN...” – “H.A.”da hayotning o‘tkinchiligi, “charxi dunyoning bevafoligi” xususida bahs yurituvchi “Aflok hay’ati shikoyatidakim” deb boshlanuvchi o‘n to‘rtinchi maqolatga ilova etilgan she’riy hikoyat. “Iskandarning yetti iqlim mamolikin panjayi tasarrufig‘a kiyurg‘oni va xoli ilik bila olamdin rihlat markabin surg‘oni”, deb sarlavha qo‘yilgan bu hikoyat markazida butun jahonni qo‘lga kiritgan (“Qolmadi bir yerki yurub olmadi, Yerki yurub olmadi bir qolmadi!”) hukmronning hayot o‘tkinchiligini anglab, o‘limi oldidan qilgan vasiyati turadi. Vasiyatda uni qabrga eltishda el ko‘rishi u-n tobutdan bir qo‘lini tashqari chiqarib qo‘yish ta’kidlangan:

...Qabrg‘a chun boshlag‘ung guzdur yo‘lum,
Na’sh yonidin chiqoring bir qo‘lum!

To kishikim qilsa nazar ul sori,
Ibrat ila boqqay o‘shul qo‘l sori.

Bilgay onikim, yeti kishvar shahi,
Yetti falak mushkulining ogahi.

Jismida jon yo‘q bu makondin borur
Xoli ilik birla jahondin borur!

Kimki, – jahon mulki havasdur anga,
Ushbu ilik – tajriba basdur anga.

N. “H.A.”dan ikki yilcha keyin yozilgan “S.I.” dostonida ham mazkur syujetga murojaat etgan.

Akad. N.I.Konrad “Tobutdan chiqib turgan ana shu ochiq kaftli qo‘l hayratomuz badiiy obrazdir. Agar Alisher faqat ana shu obraznigina yaratish bilan cheklanib qolganida ham, biz, baribir, uning buyuk shoir ekaniga qanoat hosil qilgan bo‘lardik”, deb e’tirof etgan edi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

S.R.

ISKANDAR / ISKANDAR ZULQARNAYN – (ar. ikki shoxli) Sharq xalqlari adabiyotida keng tarqalgan afsona va rivoyatlar, badiiy asarlar qahramoniga aylanib ketgan tarixiy shaxs. Ko‘p islomiy tafsir kitoblarida, Qur’oni Karimda keltirilgan Zulqarnayn – I. ekani va payg‘ambarligida ixtilof borligi aytilgan. Uni ham payg‘ambar, ham valiy deganlar bor. Ayrim tadqiqotchilar uni makedoniyalik Iskandar deb hisoblashadi. Biroq Islom ta’limotiga ko‘ra, bu to‘g‘ri emas, chunki makedoniyalik podsho Allohning yagonaligiga ishongan mo‘min bo‘lgan emas. Qur’ondagi Zulqarnayn esa mo‘mindir. U Sharqdagi musulmon xalqlari orasida mashhur. I. haqidagi ilk ma’lumot X asr tarixchilari Hamza ibn Hasan al-Isfahoniy, Dinovariy, Tabariylar asarlarida, keyinroq Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” kitobida uchraydi. Badiiy asarlarda, jumladan, Abu Ali Muhammad ibn Muhammad Bal’amiy asarida I. salbiy obraz sifatida berilgan bo‘lsa, Firdavsiyning “Shohnoma”, Nizomiyning “Iskandarnoma”, Xusrav Dehlaviyning “Oyinayi Iskandariy”, Abdurahmon Jomiyning “Xiradnomayi Iskandariy” asarlarida I. fotih, olim va payg‘ambar tarzida tasvirlangan.

N. “T.M.A.”da Xusrav Dehlaviy va Nizomiy o‘z asarlarida Iskandar mavzusini ishlaganlarini so‘zlab, shunday ilova qiladi: “Va faqir ham “Saddi Iskandariy”da ul iki buzurgvor qavmini soyir muarrixlar ahvoliga tarjih qilib, nazm adog‘iga qaror beribman”. N. asarda I. b-n Doro o‘rtasida boj to‘lash masalasida ixtilof tug‘ilib, urush boshlanishi, Doroning ikki noibi tomonidan og‘ir jarohatlanishi, uning I.ga o‘lim oldi vasiyati haqida ham ma’lumotlar berib, bularni “Saddi Iskadariy”dakim, – “Xamsa”ning beshinchi kitobidur, – mashruh ado qilibdurmen”, – deb ta’kidlaydi. N. I.ni donishmand va tadbirkor, odil va elparvar sifatida xarakterlaydi.

“T.M.A.”da I. Eronda hukmronlik qilgan kayoniylar tabaqasining to‘qqizinchi – so‘nggi vakili sifatida beriladi. I.ning nasl-nasabi va amaliy faoliyati to‘g‘risida turli mualliflar asarlarida ziddiyatli ma’lumotlar uchrashini qayd etgan N. namuna sifatida bir necha variantlarni keltiradi. I.ga nisbat berilgan “Zulqarnayn” so‘zi munosabati b-n quyidagi diqqatga sazovor ma’lumot yoritilgan: “Va aning (*Iskandarning*) umrini ming olti yuz yil bo‘ldi, deb va Zulqarnaynki, – aning laqabidir, - vajhi tasmiyani (*nom qo‘yish, laqab berish sababini*) mundoq debdurkim, ul zamonda ming yilni bir qarn der ermishlar”. Qator manbalarda, jumladan, shoirning o‘z asarlarida “qarn” asr ma’nosida bo‘lib, o‘ttiz yildan iborat ekanini nazarda tutsak, N. “Zulqarnayn” so‘zini talqin etishda, “ikki shoh egasi, ikki shoxli shaxs” kabi g‘ayri mantiqiy mazmunda emas, balki, “ikki qarn egasi”, “ikki qarn ko‘rgan shaxs” tarzida to‘la hayotiy va ishonarli qo‘llagani ravshanlashadi. Xuddi shunday talqin N.ning “S.I.”dostonida I.ga bo‘lgan munosabati, bahosi va ijobiy tavsifiga to‘la muvofiq keladi. Butun ulkan doston davomida “Zulqarnayn” laqabining biror marta ham ishlatilmagani bejiz bo‘lmasa kerak.

“Mashhurdurkim, vasiyat qildikim, yalang iliklarni tobutdin toshqori chiqorsunlarkim, olam ahlig‘a mujibi tanbeh, balki ibrat bo‘lg‘aykim, olamdin ilik torta tutqaylar. Va aning osoridin ya’juj saddidur va Marv, va Hirot, va Samarqand, va Isfahonni ham debturlarkim, ul bino qildi”, deb yozadi N. “T.M.A.”da I. haqidagi ma’lumotlar uning “barni fath” etgani, ya’jujlar ziddiga devor qurgani, ammo “charxi bebok zulmi” natijasida “gadolar kibi” “xoli qo‘l” b-n dunyoni tark etganini bayon etuvchi 8 baytli masnaviy keltirilgan.

N. I.ning hukmron shoh sifatidagi faoliyatiga yuqori baho berib: “Har taqdir bila Iskandar podshoh erdikim, andin bo‘rung‘i va so‘ng‘i salotin bu kungacha ul qilg‘on ishni qilmadilar”, – deydi.

“T.A.H.”da “...va Iskandar Zulqarnayn Yofasning to‘rtinchi o‘g‘lidur, Rus naslidin...” deyilsa, “T.M.A.”da “nisbatida (nasabida) ixtilof ko‘p ekani, ba’zilar uni Doro o‘g‘li, ayrim tarixchilar Iskandar – Xurmusi Rumiy o‘g‘li ekanini yozishgan”, – deyilgan. Asarda I.ning yoshlikdan hikmat o‘rgangani, podshoh bo‘lgani, “se-

kiz ming shoh va shahzoda xidmati”da bo‘lgani “olamning bahr-u barin olib, hayvon suyi tamannosi bila zulumotqa kirgani”, “va aning bila kirgan mulozimlardin biri Xizr, biri Ilyos alayhumassalom” ekani” va “ul suv alarg‘a nasib bo‘lub, Skandar mahrum yongani” va h.k.lar haqida so‘z yuritiladi.

N. xabar berishicha, Mavlono Mirxond “Ravzat us-safo”da Solih alayhissalom zikridan so‘ng Zulqarnayn Akbar qissasini keltirib o‘tgan va uning ta’kidlashicha, aksar tarix ahli Nuh (a.s.) dan keyin va Ibrohim (a.s.)dan oldin Hud b-n Solih (a.s.)dan boshqa payg‘ambar bo‘lmagan deganlar. Ammo saltanatdan ba’zining kalomi bunga ishorat qiladiki, o‘sha zamonlarda Zulqarnayni Akbar payg‘ambarlik martabasiga erishgan. Mujohid Abdullo ibni Umar roziyallohu anhumodan naql qilinadiki, Zulqarnaynning nubuvvatiga bir dalil shu: Alloh taolo o‘z kalomida: “Qulno yo Zalqarnayn...” *(Biz: “Ey Zulqarnayn, sen yo (ularni) azobga duchor qilursan yoki ularga yaxshi muomalada bo‘lursan”, – dedik)* (“Kahf” surasi, 86-oyat) deb anbiyo dasturi b-n xitob qilgan. Ya’juj va Ma’jujni daf qilish u-n astoydil sad (devor, to‘siq, g‘ov) qilgan. I. haqida turli fikrlar bo‘lgani u-n ham N. “tarixchilarning yozganini to‘g‘rilash qobiliyati menda yo‘q. Bunday g‘aroyib voqealardan xabardor bo‘lishni istagan kishilar mashhur tarix kitoblarini o‘qib, bahramand bo‘lsinlar”, – deydi.

Tarix kitoblarida Zulqarnayn laqabi b-n mashhur bo‘lgan buyuk shaxslar ham o‘tgan. Ulardan biri eramizdan oldin yashagan buyuk sarkarda va Makedoniyaning shohi Iskandar Maqduniy (Aleksandr Makedonskiy)dir. U Sharq va G‘arb o‘lkalarini zabt etgani u-n unga Zulqarnayn laqabi berilgan. Ikkinchisi esa al-Munzir ibn Moissamodir. U Hiyra (Suriya) mamlakatining amirlaridan bo‘lib, rumliklarga qarshi jang qilgan. U boshidagi ikki kokilini o‘rib, peshonasiga tushirib yurgani u-n Zulqarnayn laqabini berganlar. U 514–554-yy.da yashab o‘tgan.

Ammo Qur’oni Karimda zikr etilgan Zulqarnayn mufassirlarning gapiga qaraganda, payg‘ambarlik maqomiga erishgan odil shohning laqabidir.

Ozarbayjon olimi Oydin Alizodaning fikriga ko‘ra, “Musulmon tarixchilaridan Qurtubiy, Tabariy va Ibn Asirlar uni Ibrohim (a.s.) davrida yashab u kishi b-n haj qilganlarini aytgan. Ba’zi ma’lumotlarga ko‘ra, Zulqarnaynning nomi I. deyilgani u-n uni ko‘pchilik Aleksandr Makedonskiy yoki fors shohi Doro b-n almashtirgan. Lekin bu taxminlar asossizdir. Zulqarnayn sarkarda sifatida vahshiy qavmlardan bo‘lgan ya’juj va ma’jujlarning zararini daf etish u-n tosh va temirlardan to‘siq – devor yasab, ularni dunyodan uzib quygan. Ammo bu devor bugungi kundagi Xitoy devori emas. Qiyomat yaqinlashganda bu vahshiy qavm devorni teshib chiqib, boshqa mamlakat va xalqlarga haddan tashqari tajovuz va bosqinchiliklar qiladi.

Zulqarnayn o‘z davrida Yevropa va Osiyoning ko‘p mamlakatlarini egallaydi hamda Allohning qonunini joriy qiladi. U kofirlar b-n shafqatsiz urushlar olib borib, iymonlilarga yaxshi munosabatda bo‘lgan. Zulqarnayn Makka yaqinida dafn qilingan. U Shom va Madina o‘rtasidagi Dumot al-Jandalada, Tahoma tog‘ida dafn qilingan, deb taxmin qilinadi.

Yunonistondan chiqqan I. va uning qavmi tavhid (yakkaxudolik) dinida bo‘lgan, deya fikr bildirgan olimlar ham yo‘q emas. N. I.ning dunyoni fath qilgani va hikmat sohibi bo‘lganini aytadi.

N. o‘z asarlarida Qur’on ma’lumotlarini asos qilib olgan va “S.I.” dostonida I.ning ideal obrazini yaratib, uni payg‘ambar, valiy va adolatli shoh sifatida talqin etgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Ислом. Энциклопедия. – Т., 2004; Қуръон қиссалари. Пайғамбарлар қиссаси. – Т., 2013; Бойназаров Ф. Искандар Зулқарнайн. – Т., 1990; Аждодларимиз маънавий меросидан. – Т., 2014.*

S.R.

ISKANDAR KO‘ZGUSI (“Oyinayi Iskandar”) – **I.** “S.I.” dostonida Iskandarga Chin xoqoni tuhfasi. “Oyinayi Chin” hikmatidan zavqlanib, tilsimiga qoyil qolgan Iskandar “andin ortiq tilsim” kashf etishni xizmatidagi donishmand – hakimlarga topshiradi, har biri ikki yuz bilimdon hakim-hunar ustalaridan iborat bo‘lgan ikki ilmiy guruh tashkil etilib, ularning biriga Aflotun, Suqrot, Hurmuz va Balinos, ikkinchisiga esa Arastu, Buqrot va Arshimidus kabi mashhur donishmandlar rahbarlik qiladi. Iskandarning bevosita ishtiroki va doimiy homiyligida boshlangan izlanish ikki ajoyib ixtiro – yer yuzidagi barcha voqea-hodisalarni namoyish etuvchi Iskandar ko‘zgusi va Suturlobni yaratish b-n yakunlanadi.

Jahon mulki anda bo‘lub jilvagar
Kishikim, anga bo‘lsa suratnigor.

N. tasviricha, bu ko‘zguda yer yuzi – “yetti iqlim”ni kuzatish mumkin.

“F.Sh.” dostonida ham “I.K.”ga voqealar tizmasi va rivojida muhim vazifa (syujet “tuguni”) yuklatiladi, doston davomida “Iskandar tilsimi” deb ham yuritiluvchi bu ixtironing tuzilishi va hikmati ham biroz boshqacharoq talqin etiladi. Xoqon xazinasidagi sandiq ichida saqlanuvchi bu ko‘zgu:

Erur Iskandariy Rumiy nigori,
Jahon ahlig‘a oning yodgori.

Ki, aylab to‘rt yuz dono bilan jahd,
Alardin har biri Aflotung‘a hamahd.

Sipehr ahvolining sohib vuqufi,
Jahonning korband-u faylasufi.

Tanib aflok-u anjum toliyin tuz,
Bu ko‘zgu san’atida qo‘ydilar yuz.

Necha yil ranj tortib bemadoro,
Bu paykar naqshi bo‘ldi oshkoro.

Bu ko‘zgukim erur hikmat jahoni,
Tilismedur shigarf anda nihoni.

“S.I.” dostonidan farqli o‘laroq, bu ko‘zgu tilsimiga yo‘l ochish u-n, avvalo, qator xavfli to‘siq-g‘ovlarni yengish shart. Shu b-n birga, ko‘zgu, umuman, jahon va undagi voqea-hodisalarni emas, balki faqat unga qaragan shaxsning kelajak taqdiridan nishona ko‘rsatadi:

Ko‘rub ko‘zguda nekim, – ko‘rgusidur
Ki, davron boshig‘a kelturgusidur.

Dostonda Farhod barcha g‘ovlardan o‘tib, Suqrot ko‘rsatmalari yordamida Oyinayi Iskandar tilsimiga yo‘l topadi, unda Arman yurti va go‘zal Shirin qiyofasini ko‘radi.

II. Sharqda Iskandar Zulqarnayn nomi b-n mashhur shoh va sarkarda Nil daryosining g‘arbiy qismida Iskandariya shahrini barpo etganida uning amriga ko‘ra, Balinos hakim 300 gazlik baland minora yasab, uning ustiga aylanasi 21 gaz, qalinligi 7 gazdan iborat hikmat va tilsim oyinasini o‘rnatadi. U Arastu tomonidan yaratilgan ham deyiladi. Undan maqsad tashqi dushman hujumidan ogoh bo‘lish va uni daf etish edi. Temirga sayqal berib yasalgan bu oyinaga boqqan kishi dunyoda kechayotgan voqeliklardan xabardor bo‘ladi. Farangiylar posonlarning uyquga ketganidan foydalanib, bir kecha uni daryoga otib, shaharni vayron qiladilar.

Jumladan, N. “L.M.” dostonida yozadi:

Ul oyinakim, Skandar etti,
Po‘loddin o‘yla paykar etti.

Kim, Rum aro chekib manori,
Boqturdi ani Farang sori.

Chun berdi jamolig‘a kushoyish,
Ko‘rguzdi Farangdin namoyish.

Topqoch ani bu sifat ziyoliq,
Toqti otig‘a jahonnamoliq.

I.K. adabiyotda majozan oftob ma’nosida ham keladi.

Bu oyina ramziy timsol sifatida Sharq adabiyotiga kirib keldi va o‘tmishda yuz bergan, hozir kechayotgan va kelajakda sodir bo‘ladigan voqea-hodisalarni aks ettiradigan oyinai jahonnamo, jomi jahonnamo timsollarining muqobili sifatida qo‘llana boshladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Ғиёс ул-луғот. 1-жилд. – Душанбе, 1987; Бурҳони қотеъ. 1-жилд. – Душанбе, 1993.*

A.A., M.A.

“ISKANDAR BILA UL GADOLIG‘ IXTIYOR ETGAN PODSHO, BALKI FILHAQIQAT PODSHOLIQQA YETGAN GADO HIKOYATIKIM...” – “S.I.” dostonining “Himmat humoyining baland parvozlig‘i ta’rifidakim...” bobiga ilova etilgan bu hikoyatning shartli birinchi qismi Sharq va keyinchalik G‘arb adabiyotlarida turli talqinlarda uchrovchi sayyor syujet asosiga qurilgandir. Hikoyatdagi Iskandar dostonning bu bobida hali taxtga o‘tirmagan valiahd Iskandardan farqli ravishda “jahon ahliga komgor”, barcha mamlakatlarni birin-ketin egallayotgan jahongir shoh sifatida namoyon bo‘ladi. Hikoyatda bayon qilinishicha, Iskandar qaysi bir o‘lkani qo‘lga kiritmasin, taslim bo‘lgan hukmdorni o‘z yurtiga qayta shoh qilib tayinlab, so‘ngra boshqa mamlakatlar fathiga kirishar ekan. Mag‘rib zamini u-n bo‘lgan jangda esa bu yurtning shohi halok bo‘libdi. Iskandar shoh avlodidan esli-hushli kimsalarni izlatadi. Unga shunday bir kishi bo‘lib, u jamoa b-n aralashmay, qabristonda tanho yashashi, ammo o‘zi aslida dono odam ekanini aytishadi. Iskandar darhol uni topib keltirishni buyuradi. Tez orada bosh-oyoq yalang, yoqasi chok, ikki qo‘liga ikki suyak ushlagan kishini boshlab keltirishadi. Iskandar hurmat ko‘rsatib, bu suyaklarni olib yurish sababini so‘raydi, shunda u:

Dedi: “Go‘rlardin qilurda guzar,
Necha bu so‘ngaklarga soldim nazar.

Zamirimga lekin nihon qoldi bu
Ki, shohning qayudur, gadoning qayu?

Chu o‘lganda birdir bu ikki mato’,
Tiriklikda nevchun qilurlar nizo’?!”

Chuqur ijtimoiy-falsafiy mazmunga ega bo‘lgan hikoyatning shartli birinchi qismi shu tariqa yakunlanadi. Hayot va dunyoning o‘tkinchiligi haqidagi tasavvufiy motivlar ko‘zga tashlanuvchi (shartli) ikkinchi qismida Iskandar dono bu shaxsga mamlakat shohligini taklif etadi. Ammo hayot tashvish-kulfatlaridan o‘zini chetga olib, faqirlikni podshohlikdan afzal ko‘rgan donishmand Iskandar taklifini rad etadi hamda bu taklif ziddiga o‘zining quyidagi to‘rt istak-xohishini izhor qiladi:

1) abadiy tiriklik, mangu hayot; 2) qarilikka yuzlanmaydigan yigitlik; 3) bitmas-tuganmas boylik; 4) ortidan g‘am-g‘ussa bo‘lmaydigan shodlik, motam-xafachilikka ulanmaydigan xursandchilik.

Iskandar bu donishmandning barkamol shaxsiyati va ma’naviy boyligi oldida batamom lol qoladi, o‘zining shohona iltifoti, uning yuksak nazari oldida hech narsa ekanini tushunadi. Mazkur hikoyat N.ning hikoyanavis sifatidagi katta badiiy mahoratiga ham yaqqol dalil bo‘la oladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

A.A.

ISKANDAR Mirzo (Sulton Iskandar Sheroziy) – (1384–1415, Isfahon.) – Temuriy hukmdor. 1409–1415-yy.da Fors taxtida o‘tirgan. Otasi Umarshayx mirzo Amir Temurning ikkinchi o‘g‘li edi. I.M. Amir Temur davrida avval

Farg‘onada, so‘ngra Hamadonda hokim bo‘lgan. Sohibqiron vafotidan so‘ng akasi Pirmuhammad mirzo unga Yazd viloyatini bergan. Keyinchalik o‘rtalarida nizo paydo bo‘lib, Yazdni undan tortib olgan va I.M.ni Xurosonga jo‘natgan. Shohrux mirzo Pirmuhammad mirzoga xat yozib, unga nasihat qilgan va I.M.ga biror-bir viloyat berishi lozimligini aytgan. I.M. Sherozga kelgan. Pirmuhammad mirzoga uning o‘z a’yoni Xoja Husayn sharbatdor suiqasd qilib o‘ldirgandan so‘ng, I.M. taxtga o‘tirgan (1409). I.M. Shohrux mirzoga bo‘ysunishdan bosh tortgani sababli Shohrux u tomonga lashkar tortgan va I.M. jangda yengilgan. Shohrux mirzo I.M.ni ukasi Rustam mirzoga topshirgan va u I.M.ning ko‘zlariga mil tortgan. Bu voqea 1415-y.da yuz bergan.

N. I.M.ni “M.N.” tazkirasining yettinchi majlisiga kiritgan va quyidagi tuyuq janriga mansub she’rini keltirgan:

To‘lun oyga nisbat ettim yorumi,
Ul xijolatdin kam o‘ldi yorumi.
Tori mo‘yungning zakotin men beray,
Yo Misrni, yo Xalabni, yo Rumi.

Bu she’r I.M.ning o‘ziga xos iste’dod egasi bo‘lganidan darak beradi.

Afsuski, uning boshqa she’rlari bizgacha yetib kelmagan. I.M. adabiyot ahliga homiylik qilgan. N.gacha bo‘lgan turkiy adabiyotning yirik vakillaridan biri Haydar Xorazmiy uning saroyida ijod etgan. Buni N. ham qayd qilib o‘tadi va Sulton Iskandar Sheroziy zikrida Haydar Xorazmiyni (uni Navoiy Mavlono Haydar turkigo‘y deb ataydi) Sulton Iskandarning modihi (madh etuvchisi) deb ataydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Абдураззоқ Самарқандий. Матлаъйи саъдайн ва мажмайи баҳрайн. 2-жилд. – Т., 2008.*

Q.E.

“ISKANDARNOMAYI NAVOIY” – Q.: “Saddi Iskandariy”.

ISLOM (ar.– bo‘ysunish, itoat etish, o‘zini Alloh irodasiga topshirish) – jahonda keng tarqalgan uch dindan biri. Islom dini – Allohning Muhammad (s.a.v.) orqali butun insoniyatga yuborgan dinidir. Islom shariati manbalari Qur’oni Karim va hadisi sharifdir. Bularga ijmo’ va qiyos ham qo‘shiladi. I. dinining o‘z yo‘l-yo‘riqlari, ko‘rsatmalari hukm va talablari bor. Bu dinga amal qiluvchilar muslim, musulmon deb ataladi. I.da bandaning amallari sakkiz qismdan iborat bo‘ladi: Birinchisi farz, ikkinchisi vojib, uchinchisi sunnat, to‘rtinchisi mustahab, beshinchisi muboh, oltinchisi harom, yettinchisi makruh, sakkizinchisi mustakrah. Ushbu sakkiz qism amal turining ba’zilarini bajarish shart, ba’zilarini bajarish yo bajarmaslik ixtiyoriydir.

N. I. dinining vakili sifatida o‘z hayotiy faoliyati hamda asarlari b-n musulmonlikni targ‘ib qildi, axloqiy me’yorlarini, ayniqsa, Qur’on va hadislar mazmunini asarlari qatiga singdirdi, turli mavzularni ta’sirchan ifodalash va yoritish u-n ulardan unumli istifoda etdi. N. “H.A.”da I.ga alohida bob bag‘ishlab, “Islom”ning (arabcha yozuvidagi shakli nazarda tutiladi) “alif” harfi “amniyat bog‘ining sarvlari” “sin”i “saodat qasrining kungirasi”, “lom”i latofat gulchehrasining sunbuli zulfi” va “mim”i “muhabbat mash’alining nuri” deb ta’riflaydi. N. bu bobda I.ning haq dinligi va uning fazilatlariga to‘xtalib, musulmonlarning “ahli najot”ligini ta’kidlaydi. I.ning beshta sharti: iymon keltirish, namoz o‘qish, bir oy ro‘za tutish, zakot berish va hajga borish masalalarini yoritib, izohlab beradi. Ammo N. shariatning zohiriy amallarini bajarish b-n birga botinni poklash, axloqan va ruhan kamolotga erishish zarurligini ham eslatib turadi. Shuning u-n ulug‘ shoir musulmonlikni da’vo qilgan soxta shayxlar, riyokorlar va axloqi buzuqlarni tanqid qiladi.

N. asarlarida u yoki bu munosabat b-n doimo I. ko‘rsatmalarini eslatib turadi. Jumladan, “Nasim ul-xuld” qasidasida I. arkonlariga amal qi-

lishni targ‘ib etadi: “La ilaha illalloh”dagi aliflar dilingda tikib qo‘yilganday, mixlanganday mustahkamlansin. Uni isbot va rad qilishdan aqlga yo‘l qolmasin. Ma’naviyatingda Haqqa vosillikni muqarrar qilgach, zohirda shariat qoidalariga amal qilishni zarur deb bil. Besh vaqt namoz islom panjasining quvvati bo‘ldi. Uning odob-u arkonlariga rioya qilib, ado etgin. Zakot yigirmadan bir deb olindi. Uning qolgan yigirmasidan ham haq berish dil hukmidir. Balli, shukronani berish mardlarning qarzidir. Ro‘zang vujudingni shariat tomonidan ta’qiqlanganlardan saqlaydi. Dilning ro‘zasi Rahmonni yodlab turishingning yo‘lini to‘sib turuvchilardan himoya qiladi. Undan keyin hajning shartlarini ado qilmoqchi bo‘lsang, buning u-n unga qodir bo‘lmoqlig-u, yo‘l xavfsizligi kerak. Uning biyoboniga zohir yuzasidan qadam tashlab bo‘lmaydi”.

N.ning I. diniga bag‘ishlangan asari “S.M.”-dir (Q.: “Siroj ul-muslimin”). Muallif asarning yozilish sabablariga, iymon shartlari va aqida masalalariga to‘xtaladi. Iymondan keyin islomni bilish va egallashga da’vat qiladi:

Angakim, bo‘ldi iymon amri kirdor,
Kerak islomdin bo‘lsa xabardor.
Binosin anglag‘il Islomning besh,
Ani bilmakka bo‘lg‘il fikratandesh.

N. bu asarida I.ning besh ruknini batafsilroq yoritadi. Har bir ruknga tegishli bo‘lgan masalalarga ham e’tibor qaratadi. M-n, ikkinchi rukn bo‘lgan namoz haqida gapirar ekan, avvalo, tahorat farzlari, sunnatlari, mustahablari, noqizlari (buzadigan narsalari), g‘uslni vojib qiluvchi sabablar, g‘uslning farzlari, sunnatlari, tayammum farzlari, noqizlariga to‘xtaladi, undan keyin namozning batafsil zikriga o‘tadi. Shuningdek, ro‘za, zakot va haj masalalarini ham atroflicha yoritib beradi. N.ning bu mo‘jaz asari diniy savodxonlikni oshirishda muayyan bir dasturdir.

N. musulmon qanday bo‘lishi kerak, degan savolga ham javob berib o‘tadi. Uningcha, musulmon faqat shariat amrlarini bajarish b-n kifoyalanmasdan, doimo xulqini takomillashtirib, go‘zallashtirib borishi zarur. Payg‘ambarlik mohiyatlaridan biri ham axloqni tuzatishga qaratilgan. Shoir “M.Q.” asarida musulmonga xos bo‘lgan axloqiy me’yorlarni batafsil bayon qilar ekan, shayx-ul islom, qozi, muftiy kabi din peshvolarining o‘z sohalarini yaxshi bilishlari, nojoiz, noshar’iy amallardan, axloqsizliklardan yiroq bo‘lishlarini talab qiladi. Xususan, xalq b-n ishlaydigan, xalq dardini tinglaydigan mansabdor yoki diniy – ruhoniy lavozimdagi kishilarni ilmiga amal qilishga, halollikka, diyonatli bo‘lishga chaqiradi. M-n, poraxo‘r qozi – islom qal’asini buzuvchi, kimki, pora berib, hukm chiqarib olsa, u pora berib shariatni ham buza oladi, deydi. Shoir tanbehlaridan birida tili pok-u ko‘ngli pokni musulmon deb ataydi. “Musulmon shunday kishiki, musulmonlar uning tili va qo‘lidan zarar ko‘rmaydi va ko‘zi hamda ko‘nglidan xotirjam bo‘lishadi”, degan hadis ma’nosini keltiradi. Zulm va birovlar qalbiga ozor berish I.da katta gunoh sanalgani u-n shoir “H.A.”da ham bu masalaga to‘xtalgan. “A.” asarida mazkur hadisni o‘zbekchalashtirib shunday deydi:

Kim musulmonlig‘ aylasa da’vo,
Chin emas gar fido qilur jonlar.

Ul musulmondururki, solimdur
Tili-yu ilgidin musulmonlar.

Xullas, N. I.ning ilm-u ijodga ko‘rsatgan ta’sirini, shaxs va jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyatini o‘zining ibratli hayoti hamda o‘lmas asarlari orqali har tomonlama ko‘rsatib, isbotlab bergan. Uning asarlaridan ma’lum bo‘ladiki, I. faqat so‘z, e’tiqod va diniy ilmlardan iboratgina emas, balki musulmon o‘z hayotini, tafakkur tarzini, axloqiy mezonlarini sog‘lom e’tiqod, go‘zal axloq va shar’iy ko‘rsatmalarga binoan ta’minlashi lozimdir.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер*

Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ситтаи зарурия. – Т., 2008; Алишер Навоий. Арбаъин. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Аҳмад Ҳодий Мақсудий. Ибодати исломия. – Т., 2016; Турсун А., Жуман М.Ш. Ислом дини. – Т., 2013.

S.R.

“ISMAT UD-DUNYO” – dunyo pokizasi. N. bu ibora b-n Sulton Husayn Boyqaroning suyukli xotini Xadichabegimni ta’riflagan. “B.V.” devoniga kiritilgan g‘azallarning birida mana bu bayt mavjud:

Navoiy, gar quyosh noranjidin
behrak ko‘rar, tong yo‘q,
Behikim, lutf qilmish mahdi ul’yo
ismat ud-dunyo.

Mahdi ul’yo esa oliy daraja. N. asarlarida bu ibora Shohruxning katta xotini Gavharshodbegim hamda Husayn Boyqaroning suyukli xotini Xadichabegimlarni ta’riflashda qo‘llangan. Shuningdek, “S.I.” dostonida Iskandarning xotinlaridan Ravshanakka berilgan unvon. U butun shoh haramiga boshchilik qilgan.

... Hamul Ravshanak mahdi ul’yo bo‘lub,
Shabistonida majlisoro bo‘lub.
Bori parda ahlig‘a bonu edi,
Ki, shah birla zon-u bazon-u edi.

Ad.: *Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик, 3-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

A.A.

ISMI A’ZAM – Alloh taoloning ismlari ichida eng ulug‘i. Xudoning faqat o‘ziga va ba’zi farishtalargagina ma’lum bo‘lgan ismi. Bu borada ixtiloflar mavjud. Ba’zilar bu ism Samad (hojatbaror), ba’zilar Qayyum (o‘z-o‘zidan turuvchi, boshqalarni turg‘uzuvchi), ba’zilar Rahmon ul-Rahim (o‘ta mehribon va juda rahmli), ba’zilar Muhaymin (egallab oluvchi) deydilar. Bir qism ulamolar I.A.ni “Abjad”ning 8 so‘zida pinhon deb hisoblasalar, ba’zilar “Oyat ul-kursi” matni yo Qur’on suralari ichida yashirin deb biladilar.

I.A.ni bilgan kishi har qanday ishga qodir bo‘lar emish. M-n, Sulaymon (a.s.)ga Xudoning sirli va muqaddas ismi – I.A. ma’lum bo‘lgan va bu ism uning sehrli uzugiga naqsh qilingan. Uzuk vositasida u nafaqat odamlar, balki hayvonlar, qushlar, barcha ins-jinslarga, tabiat hodisalariga hukmini o‘tkaza olgan:

Ki, qalqon qubbasida misli xotam,
Sulaymon yozdurubtur ismi a’zam.

Ad.: *Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. – Душанбе, 1987; Ислом (Энциклопедия). – Т., 2004; Донишмандлар туҳфаси. – Т., 2009; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва табъироти ирфоний. – Теҳрон, 1389 (ҳ.-ш.); Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988.*

E.O.

ISMOIL (a.s.) – Qur’oni Karimda 8 ta suraning 12 oyatida zikr qilingan payg‘ambar. Laqabi Zabihulloh. N.ning yozishicha, “Ismoil (a.s.) payg‘ambari mursal” bo‘lgan va doimo ov qilish b-n shug‘ullangan.

Ma’lumki, Ibrohim (a.s.) va Sora onamizning ancha vaqtgacha farzandi bo‘lmaydi. Shunda Sora onamiz Ibrohim (a.s.)ning o‘z kanizagi Hojarga uylanishiga rozi bo‘ladi. Farzandlik bo‘lgach, hazrati Sora Hojarni rashk qila boshlaydi. Ibrohim (a.s.)dan uni bolasi b-n olisroq bir yerga eltib qo‘yishini talab qiladi. Ibrohim (a.s.) emizikli I. (a.s.)ni onasi Hojar b-n birga bir cho‘l-u biyobonga, hozirdagi Ka’ba yoniga olib borib qo‘yadi. Qaytib ketishi arafasida Hojarning nolasiga javoban Ibrohim (a.s.) bu ishni Allohning amri b-n qilayotganini aytgach, u taskin topadi.

Ibrohim (a.s.) qaytgach, qoldirgan suv va ozuqa tugab, Hojar o‘zi va farzandi u-n suv axtarib, Safo va Marva tepaliklari orasida yetti marta u yoqdan bu yoqqa yugurgan. Shunda Alloh marhamat qilib, go‘dak I. yotgan joydan, uning oyoqlari ostidan suv chiqarib beradi. Onasi kelib qarasa, o‘g‘lining oyog‘i ostidan suv chiqib, jilg‘a bo‘lib oqib yotibdi. Darhol Hojar onamiz suvga qarab: “Zam-zam” ya’ni, “To‘xta, to‘xta”, dedi. Keyinchalik bu joylarga qabilalar ko‘chib kelgan. I. (a.s.) hayotlik chog‘larida Zamzamning tasarrufi u kishining qo‘lida bo‘lgan. Cho‘lning o‘rtasida joylashgan bu buloqning atrofida Makka shahri qurilgan. Biroz vaqt o‘tib, Ibrohim (a.s.) ayolini va o‘g‘lini ziyorat etishga kelganida, ularni mo‘l-ko‘llik va barokat ichida ko‘radi.

Ibrohim (a.s.) gohida kelib ulardan xabar olib ketar edi. Alloh Ibrohim (a.s.)ni imtihon qilish maqsadida endigina yetilib kelayotgan suyukli farzandi I. (a.s.)ni Alloh yo‘lida qurbonlik qilishga buyuradi. Ibrohim (a.s.) bu voqeani farzandi I. (a.s.)ga aytganida, u otasiga “Parvardigor nimaga amr qilgan bo‘lsa bajaravering, men roziman”, deb javob beradi. Ibrohim (a.s.) farzandi I. (a.s.)ni qurbonlik qilmoqchi bo‘lganida Alloh I. (a.s.) o‘rniga bir qo‘chqorni yuborib, shuni so‘yishni buyuradi. I. (a.s.) voyaga yetgach, Allohning amriga binoan o‘z otasi Ibrohim (a.s.) b-n birga Ka’bani bino qilishadi. I. (a.s.) shu atrofda yashovchi Jurhum qabilasidagi bir qizga uylanadi, lekin bu ayolning noshukur va besabrligini bilgach, ushbu qabiladan yana boshqa bir qizga uylanadi. Ulardan arab tilini o‘rganadi. Rivoyatlarga ko‘ra, Shimoliy Arab qabilalarining hammasi I. (a.s.)dan tarqalgan.

N. keltirgan rivoyatga ko‘ra, Ibrohim (a.s.) Shomdin Makkaga kelib, gohida farzandi xonadonidan xabar olib turar edi. Bir marta kelganida, I. (a.s.) ovda bo‘ladi, uning uyiga borib, ahvolini so‘raydi. I. (a.s.)ning ayoli Ibrohim (a.s.) hurmatini o‘rniga qo‘ymay, uni beparvolik b-n kuzatadi. Ibrohim (a.s.) keliniga “Ismoil kelsa, eshigingning poshnasini (ostonasini) o‘zgartirgaysen, deb aytgil”, deydi. I. (a.s.) kelganda, xotini unga bir kishining kelgani-yu, aytib ketgan so‘zlarini yetkazadi. I. (a.s.) otasi ekanini biladi, darhol u xotinni taloq qiladi, boshqasini nikohiga oladi. Yana bir yil Ibrohim (a.s.) Makkaga kelganida ham I. (a.s.) ovda bo‘ladi. Ammo bu xotini Ibrohim (a.s.)ga ko‘p ta’zim qilib, mehmondorchilik qiladi. Ibrohim (a.s.) aytadiki: Ismoil kelsa, aytgilkim, eshigingning yaxshi poshnasi bor, o‘zgartirmagaysen. I. (a.s.) kelgach, xotini bu so‘zlarni unga aytadi. I. (a.s.) biladiki, otasi bu xotinidan rozi bo‘lgan. Uning hurmatini joyiga qo‘yadi.

N. yozadiki, Haq taolo Ibrohim (a.s.)ga Soradan Is’hoq (a.s.) tug‘ilishini karomat qilganida va Is’hoq naslidin ming payg‘ambar tug‘ilishini aytganida, munojot qilib, aytadiki: Xudoyo, Is’hoqqa bu kabi ulug‘ ehson karomat qilding, Ismoilni ham bir maxsus inoyat bila bahramand qil! Xitob keladiki, “oxir uz-zamon payg‘ambari (s.a.v.)kim, koinot ofarinishi va mavjudot parvarishig‘a aning sharif zotining xilqati sababdur, I. (a.s.) naslidin bo‘lg‘usidur”.

Ibrohim (a.s.) xursand bo‘lib, Allohga shukr bajo keltiradi va Makkada Ka’ba uyini bino qiladi. Bayt ul-haram qurilishini tugatgandan so‘ng, aytishlaricha, shukr qilib, yelkasini Ka’ba devoriga qo‘yib, “bu uyni tugatdim”, – deb faxrlanadi. Shunda ilohiy xitob keladiki, “bir ochni to‘ydirdingmu yoki bir yalang‘ochni kiydirdingmu, bunchalik o‘zingdan ketasan?!” Bundan Ibrohim (a.s.) fahmlaydiki, bu qilgan ishi yuqoridagi ikki ish oldida hech narsa emas. Shundan so‘ng Ibrohim (a.s.) bu ikki ishning, ya’ni ochni to‘yg‘izish va yalang‘ochni kiyg‘izishning ulug‘ ish ekanini anglab, mehmonxona yasab, och-yalang‘ochlarni, musofir-u mujovirlarni ikrom qilishga g‘ayrat qiladi. Ehtimol, N. ham shu voqeadan ta’sirlanib yozgandir:

Kimki bir ko‘ngli buzug‘ning
xotirin shod aylagay,
Oncha borkim Ka’ba vayron
bo‘lsa obod aylagay.

N. I. (a.s.)ning vafoti haqida shunday deydi: “Ismoil (a.s.) Hazramavt ahlig‘a hidoyat uchun ma’mur bo‘ldi va ul xaloyiqqa ellik yil nasihat qilib, Tangri taolo yo‘lin ko‘rguzdi, qabul qilmadilar, faqat oz kishigina qabul qildilar”. I. (a.s.) 137 yil umr ko‘rgan va vafotidan so‘ng onasi Hojar yoniga dafn etilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Пайғамбарлар тарихи (Исломият тарихи). – Т., 2014; Муҳаммад Саййид Тантовий. Пайғамбарлар тарихи (Қуръони Карим қиссасалари). – Т., 2014.*

S.R.

ISMOIL Hikmat Ertaylon (1889–1967, Istanbul) – muallim, adabiyot tarixchisi, yozuvchi va olim. U Turkiya va Ozarbayjonda tahsil olgan, arab va fors tillarini mukammal egallagan. 1914–21-yy.da Yevropa mamlakatlarida tadqiqot olib borgan. 1921–27-yy.da Turkiya Tashqi ishlar vazirligi Ozarbayjonga yuboradi. Bokudagi universitet va teatr maktablarida Turk adabiyoti tarixi, G‘arb adabiyoti tarixi, Lotin adabiyoti tarixi va San’at tarixi fanlaridan dars bergan. 1927-y. da yurtiga qaytgach, Lafkosha litseyining direktorligini bajaradi. 1939-y.dan Afg‘onistonning Maorif vaziri lavozimiga tayinlanadi. 1942-y.da yana Turkiyaga qaytadi va umrining so‘ngiga qadar muallimlik qilgan.

I.H.E. bir necha she’riy, nasriy va dramatik asarlar muallifi. U turkiy xalqlar madaniyati va adabiyoti tarixi masalalari b-n maxsus shug‘ullangan, mumtoz va zamonaviy adabiyot vakillarining meroslarini o‘rganish hamda keng kitobxonlar o‘rtasida targ‘ib etishda samarali natijalarga erishgan. 4 jildlik “Turk adabiyoti tarixi (1925–1926, Boku), “Ozarbayjon adabiyoti tarixi” (1928), “Yunon adabiyoti tarixi” nomli yirik tadqiqotlar yozgan U Ziyo Posho, Shinosiy, Nomiq Kamol, Ahmad Posho, Nabizoda Nozim, Ahmad Mithat, Tavfiq Fikrat singari turk oydinlarining avtobiografiyasini birinchilardan bo‘lib yaratdi. Muallifi noma’lum “Yusuf va Zulayho” dostonini, Mavlono Lutfiy devonini, Fuzuliy she’rlarini, Husayn Boyqaro risola va devonini, Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarini nashrga tayyorladi.

Jami 58 tadqiqot muallifi I.H.E. ayni vaqtda N. davri b-n ham shug‘ullangan. N. merosi, adabiy ta’sir doirasi, turk va ozarbayjon shoirlari b-n aloqalarini chuqur tadqiq etgan. Olim “Ozarbayjon adabiyoti tarixi” nomli 2 jildli kitobida N. davridagi Hirot adabiy maktabidan bahramand bo‘lgan Basiriy, Shohgulubek, Savsaniy, Niyoziy, Kiromiy kabi shoirlar ijodini keng tahlil etadi. Ularning N. shaxsiyati va asarlariga munosabati masalasidan bahs etadi. M-n, Basiriy ismli turk shoiri N. huzurida bo‘lib, u b-n suhbatlar qurgan. So‘ngra Hirotdan Turkiyaga qaytar ekan, o‘zi b-n birga N. va Jomiyning devonlari, maktublarini ham olib keladi.

I.H.E.ning 1926-y. Bokuda N. tavalludining 500 yilligi (hijriy-qamariy yil hisobida) munosabati b-n nashr etilgan “Navoiy” nomli to‘plamga “Alisher Navoiyning hayoti va uning adabiy jarayondagi mavqeyi” deb atalgan maqolasi kiritilgan. Shu yili N.ning Bokuda chop qilingan “V.” asarida olimning “Navoiy” nomli so‘zboshisi va “Maorif ishchisi” jurnalida “Navoiy va turk adabiyoti” maqolasi bosiladi. Mazkur maqolalar masalalar qamrovi va ularni atroflicha xolis tahlil etish jihatidan ilk n.shunoslikka doir maydonga kelgan eng yaxshi tadqiqotlar sifatida baholangan. Shuningdek, uning 1937-y.da chop etilgan “Chig‘atoy adabiyoti” kitobida N. hayoti va ijodiy faoliyatiga oid alohida bob mavjud. Muallif N. asarlariga birma-bir to‘xtalib, bosh g‘oyasi va mazmuni haqida fikrlar bildirgan. N. g‘azallarini usmonli turk tiliga tarjima qilgan.

Ad.: *Ertaylan İ.H. (2013). Azerbaycan Edebiyatı Tarihi I – II. Haz. Parvana Bayram. Ankara: Akçağ.; İsmail Hikmet Ertaylan. Amir Alisher Navoiyning hayoti va adabiy jarayondagı mavqeyi. – “Navoiy” to‘plami. – Baku, 1926; Ismoil Hikmet. Navoiy va turk adabiyoti. – Baku, 1926.*

N.H., S.O‘.

ISMOILOV Ilyos – f.f.d-ri. (2022). N. ijodi, xususan, “X.” dostonlari tadqiqi b-n shug‘ullanadi. I.I. “Navoiy ijodida Iskandar obrazi talqinlari”, “Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostonining qiyosiy tahlili”, “Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni genezisi va poetikasi” nomli monografiyalar hamda “Alisher Navoiy “Xamsa”sida kirish boblarning o‘rni”, “Alisher Navoiy ijodida Suqrot timsoli”, “Saddi Iskandariy” dostonida badiiy shartlilik masalasi”, “Saddi Iskandariy” dostonidagi adabiy ta’sir va o‘ziga xoslik xususida”, “Ahmadiy va uning “Iskandarnoma” dostoni”, “O‘zbek adabiyotshunosligida Nizomiy “Xamsa”sining qiyosiy tadqiqi”, “Navoiy ijodida Iskandar va obi hayot obrazlari”, “Iskandar devori”, “Iskandar ko‘zgusi tilsimi”, “XI–XIV asrlarda yaratilgan turkiy manbalarda Iskandar haqida”, “Psevdo-Kallisfen an’anasi va Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni”, “Navoiy va Nizomiy Iskandarnomalaridagi tavhid boblar qiyosi”, “Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoniga asos bo‘lgan tarixiy-adabiy manbalarning qiyosiy tahlili”, “Alisher Navoiy ijodida Iskandar obrazi talqinlari”, “Iskandar qissasi Firdavsiy va Nizomiy talqinida”, “Tafsirlarda Iskandar mavzusiga oid talqinlar” kabi mamlakatimiz va xorij matbuotida chop etilgan ilmiy maqolalar muallifi. Shuningdek, N. ijodiga bag‘ishlangan “Badiiy ummon qatralari” (monografiya), “Alisher Navoiy: qomusiy lug‘at”ining hammualliflaridandir.

Ad.: *Ismoilov I. Navoiy ijodida Iskandar obrazi talqinlari. – T., 2020; Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni genezisi va poetikasi. – T., 2022.*

S.O.

ISO (a.s.) (Iso Masih, Iisus Xristos) – Qur’oni Karimning “Maryam”, “Oli Imron”, “Moida” va “Saf” kabi suralarida I. (a.s.) haqida ma’lumotlar berilgan. Islomda I. (a.s.) “Ulul azm” (sabot egalari)dan bo‘lgan, Muhammad (s.a.v.)dan oldin o‘tgan payg‘ambar hisoblanadi. U zot Isoyi Ruhulloh (Allohning ruhi), shuningdek, “Masih”, “Haqni so‘zlovchi”, “Ibn Maryam”, “Allohning muqarrabi” (yaqini) deb ta’riflanadi. Iso, Masih, Masiho, Ruhulloh nasroniylik dinining asoschisi. Injil kitobi unga nozil bo‘lgan. Qur’oni Karimda I. (a.s.) ismi 25 marta uchraydi. N. “T.M.A.”da Shopur binni Ashk to‘g‘risida yozib aytadiki: “Ba’zi debdurlarkim, I. (a.s.) aning zamonida mab’us bo‘ldi (payg‘ambar qilib yuborildi) va Yahyo va Zakariyo va Jirjis alayhissalomni ham ba’zi debdurlarkim, aning zamonida erdilar. Va Ag‘ustus qaysar anga muosir (asrdosh) erdi”.

I. (a.s.) Allohning izni b-n har qanday kasalliklarni tuzatish, o‘liklarni tiriltirish kabi mo‘jizalarga ega bo‘lgan. N. “T.A.H.” asarida ta’kidlashicha, I. (a.s.)dan ilgari o‘tgan payg‘ambarlarga qirq yoshidan so‘ng payg‘ambarlik maqomi berilgan, I. (a.s.)da go‘daklikdan payg‘ambarlik nishonalari namoyon bo‘lgan. Onasi Maryam Jabroil (a.s.)ning nafasi b-n homilador bo‘ladi va I. (a.s.) dunyoga keladi. Xalqni I. (a.s.) haq dinga da’vat etib, ulug‘ mo‘jizalar ko‘rsatadi.

I. (a.s.) yoshi 30 ga yetganida, Alloh uni “Bani Isroil” qavmini hidoyatga boshlash u-n payg‘ambar qilib yuboradi. I. (a.s.)ning da’vat ishlariga 12 nafar “havoriylar” deb nomlangan shogirdlari yordam bergan. Qavmi payg‘ambarlik isboti sifatida undan mo‘jiza ko‘rsatishini talab qilgan. Allohning irodasi b-n I. (a.s.) loydan qush shaklini yasab, unga puflasa, qush bo‘lib uchar, tug‘ma ko‘r bo‘lib tug‘ilganlarni qo‘li b-n silasa, ko‘radigan bo‘lar, peslarga qo‘lini tekkizsa, tuzalar edi. I. (a.s.) Muhammad (s.a.v.)ning dunyoga kelishini ham bashorat qilgan edi. Qur’oni Karim ta’limotiga ko‘ra, I. (a.s.) Allohning o‘g‘li emas, Xudo ham emas, Allohning tanlangan bir bandasidir.

N. mazkur asarida I. (a.s.)ning Imom Mahdiy zuhur qilganidan so‘ng osmondan tushishi, Dajjoli la’inni o‘ldirishi, millatlarni to‘g‘rilikka va haq dinga da’vat etishi, shuningdek, o‘n yetti yoshda payg‘ambar bo‘lgani-yu o‘ttiz uch yoshida xalq ta’na-yu malomat qilganda, I. (a.s.) Allohning izni b-n Tangri taoloning bandasi ekani,

o‘zining payg‘ambar bo‘lishi va onasining pokligiga hamda xotam ul-anbiyo (Muhammad s.a.v.) ning dunyoga kelishiga bashorat beradi. Alloh taolo iymon keltirmaganlar zararidan asrash u-n I. (a.s.)ni osmonga olib chiqib ketganidan xabar beradi.

N. I. (a.s.)ning mol-dunyodan etak yiqqani uning “bir pashmina (jundor) to‘n va bo‘rk va bir asosi” bor ekani, bir yerda turmasdan doim sayr-u sayohat qilgani, rizq u-n biror kasb qilmagani, yetgan rizqiga qanoat qilganini yozadi. Havoriylar I. (a.s.)ga doim piyoda yurish qiyin, biror ulov olib mingil, deb iltimos qilsalar ham ko‘nmaydi. Uy-joy qurib berishlariga ham ko‘nmaydi, ayollar b-n ham ishi bo‘lmaydi. Shuning u-n ham mujarradliq (bo'ydoqlik, faqirlik) b-n mashhur bo‘lgan.

I. (a.s.)ni dushmanlari o‘ldirishmagan, u chormix etib qatl qilinmagan. Bu hodisa ular ko‘ziga ko‘ringan, xolos. Aslida I. (a.s.) tiriklayin osmonga ko‘tarilgan va Qiyomat kuni arafasida yer yuzida yana paydo bo‘ladi.

N. ijodida I. Masih ko‘plab g‘oyaviy-badiiy vazifalarni bajarishga xizmat qiladigan obrazlardan biridir. U poklik, go‘zallik, qanoat, tajrid, tafrid va hoziq tabib timsoli. Ma’shuqning axloqi, husni, chiroyi, a’zolari ta’rif-tavsif etilganda, I. Masihga qiyoslanadi, ba’zan undan ustun qo‘yiladi:

Chun deding o‘lsa Navoiy, jon berur
la’lim anga,
Ey Masihim, ruhparvar la’li
nobingg‘a o‘lay.

Su hayvon chashmasidin,
el Masih anfosidin topsa,
Qachon to‘big‘a naxli qomatingcha
e’tidol o‘lg‘ay?

N. lirik qahramonning ichki holati, qayg‘u va quvonchi, iztirob va hayajonini badiiy tasvirlash u-n ham I. (Masih, Masiho) timsoliga tez-tez murojaat etadi:

Ey Navoiy, fayzdin anfosim o‘lmish ruhbaxsh,
To Masihodek aloyiq zulmatidin pokmen.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Ислом. Энциклопедия. – Т., 2004; Раҳмутуллоҳ қори Обидов. Қуръони Каримда Ийсо пайғамбар сиймоси. – Т., 2002; Пайғамбарлар тарихи (Исломият тарихи). – Т., 2014; Қобилов У. Илоҳиёт ва бадиият. – Т., 2008.*

S.R.

ISO NAFASI – Sharq adabiyotida islomdan keyin paydo bo‘lgan mashhur badiiy obraz. Bu obraz diniy qarashlar b-n bog‘liq bo‘lib, Iso (a.s.) o‘zining Xudo tomonidan yuborilgan payg‘ambar ekanini e’lon qilganida yahudiylar undan so‘zining tasdig‘i u-n mo‘jiza ko‘rsatishini talab qilishadi. Shunda u Xudoga iltijo qilib, bir chora so‘raganida unga o‘likni tiriltirish xislati ato qilinadi. So‘ngra u odamlar oldiga chiqib, duo qiladi va Ozir otlig‘ o‘lgan kishi tirilib, uning chindan ham payg‘ambar ekaniga guvohlik beradi. N. ning “T.A.H.” asarida yozishicha: “ul o‘likkim, Iso (a.s.) tirguzdi, Inb ul-A’juz erdi. Va sharhi budurkim, sayr asnosida bir ajuzani ko‘rdikim, bir qabr boshida muassir navha qiladur. Kayfiyatin so‘rdi. Dedikim, o‘g‘lum erdi va firoqidin betoqatmen. Iso (a.s.) duo qilib, Tangri taolo ul mayyitqa ruh kiyurdi va o‘luk tirilgach, iltimos qildikim, duo qilg‘ayki, burung‘i holig‘a borg‘ay va mavt saqaroti bo‘lmag‘ay. Ruhulloh duosi bila bu ish ham bo‘ldi...”. U xalq talabiga ko‘ra o‘lganiga 4 ming yil bo‘lgan Som ibn Nuhni ham tiriltiradi. Balchiqdan ko‘rshapalak yasab, nafasi b-n unga jon ato etadi. I.N. Iso dami, Masih anfosi kabi iboralar shu b-n bog‘liq. Shoirlar bu obrazdan kishiga go‘yo jon bag‘ishlaydigan har kishi yoki narsani I.N.ga tashbeh etadilar. Sharq she’riyatida, asosan, jonbaxsh nafasi oshig‘iga hayot bag‘ishlaydigan ma’shuqa o‘likni tiriltiradigan Iso Masihga nisbat beriladi. Voqean, Masih – silovchi degani. Iso Masihning qo‘li tekkan o‘likka jon kirishi u-n ham unga Masih nomi be-

rilgan. Bu obraz N. she'riyatida ham faol qo'llanadi. M-n:

La'lini sevdum, ko'zining qatlidin
qayg'urmog'um,
Ne g'am o'lmaktin kishi bo'lsa
Masiho birla do'st.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Қисаси Рабғузий. 2-китоб. – Т., 1991; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988; Очилов Э. Бир ҳовуч дур. – Т., 2011.*

E.O.

ISPAND / SIPAND (f.) – hazorispand, isiriq. O'zi o'sadigan, kichkina qora urug'lari bo'lgan, o'tga solib tutatsa, go'yo yomon ko'zdan asraydi, deb e'tiqod qilinadigan ko'p yillik yovvoyi o'simlik. Xalq tabobatida shifobaxsh vosita sifatida turli kasalliklarda foydalaniladi. Shoirlar o'z she'rlarida undan turli badiiy maqsadlarda istifoda etadilar. N. ijodida ham bunga ko'p duch kelamiz. M-n:

Ul oy o'tlug' yuzin ochsa,
Navoiy tegmasin deb ko'z,
Muhabbat tuxmidin o'zga ul o't
uzra sipand etmas .

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилдлик. 2-жилд. – Т., 2007.*

E.O.

ISTAXR – Pulvor daryosining 2 sohilida Sherozdan shimoliy sharqda taxminan 50 km., Jamshid taxti (Persopol)dan 5 km. masofada bo'lgan qadimiy Eron mulkidagi shahar. U dastlab qal'a bo'lib, u yerda hovuz bo'lgani u-n shunday atalgan deydilar. Chunki hovuzni forslar I. deganlar. Dorob ibni Dorobning poytaxti bo'lgan. U sosoniylar davrining yirik shaharlaridan biri, Forsning ulkan viloyati edi. Yunonlar uni Persopol deb ataganlar. I. shimolida xaxomanishiy shohlarining maqbaralari oq marmar b-n ziynatlangan ediki, u hozir "Naqshi Rustam" deb yuritiladi. Sheroz hududidan tashqarida Xuroson ko'prigi va Sulaymon masjidi mavjud. Sosoniylar sulolasining asoschisi Ardasher I I.da qator hashamatli binolar bunyod qilgan. Manbalarning ma'lumot berishicha, I. Eron zardushtiylarining yirik markazlaridan biri bo'lib, unda serhosillik ma'budasi Anaxitaga bag'ishlangan ulkan ibodatxona mavjud edi va u sosoniylar sulolasining ma'badi hisoblanar edi. Sosoniylar davrida Forsning Sheroz, Fiso, Sirof, Arrojon kabi boshqa shaharlari ketma-ket rivojlanib, I. sekin-asta o'zining avvalgi mavqeyini boy bera boradi va X asrga kelib kichik bir shaharcha darajasiga tushib qoladi.

N. ushbu qadimiy shahar va uning tarixini yaxshi bilgan. "T.M.A." asarida ushbu shahar b-n bog'liq ma'lumotlarni ham keltiradi. Ularda rivoyatlar va tarixiy faktlar aralashib ketgan bo'lishiga qaramay, N.ning mazkur shahar haqida yozganlari muayyan ilmiy qimmatga ega. N. I.ni Ajam shohlarining birinchisi bo'lgan Kayumars tomonidan qurilgan deb hisoblaydi va Kayumars haqida "Ko'prak avqot anda (ya'ni Istaxrda – Q.E.) bo'lur edi ", - deb yozadi. N. I.ning obod bo'lishi va ulkan shaharga aylanishini Jamshid nomi b-n bog'laydi. N.ning yozishicha, uning davrida shahar kengaygan va uzunligi o'n ikki yog'ochga (bir yog'och 6-7 km. – Q.E.), kengligi o'n yog'ochga yetgan. N.ning sosoniylar sulolasining asoschisi Ardasher Bobak faoliyati hamda hokimiyatni Arshakiylardan yangi sulola qo'liga o'tishi b-n bog'liq voqealarda I. shahrining o'ynagan roli haqida keltirgan ma'lumotlari alohida diqqatga sazovor. Ulardan ma'lum bo'lishicha, Ardasher so'nggi Arshakiy hukmdor Arduvonga qarshi kurash boshlaganda, I. shahriga kelgan va bu yerda o'z tarafdorlarini to'plagan. Arshakiylarga birinchi zarba shu yerda – I.da berilgan. Ardasher va uning tarafdorlari Arduvonning o'g'liga hujum qilgan. O'g'liga yordamga kel-

gan Arduvon ham mag‘lubiyatga uchratilgan va o‘ldirilgan (224). Shuningdek, N. sosoniylar sulosasining so‘nggi vakili bo‘lgan Yazdijirdning ham taxtga o‘tirmasdan oldin I.da yashagani haqida ma’lumot beradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988; Бурҳони қотеъ. Жилд 1. – Душанбе, 1993; Луконин. В.Т. Культура сасанидского Иранаср. – М, 1969; Грантовский Э.А. и другие. История Иранаср. – Москва, 1977.*

Q.E.

ISTIORA (ar. – omonatga olish) – so‘z ma’nosini vaqtincha omonatga olib, ko‘chma ma’noda ishlatish b-n bog‘liq badiiy san’at. U o‘xshatish asosida kelib chiqqan bo‘lib, o‘xshagan narsa va o‘xshatish qo‘shimchasining tushib qolib, o‘xshagan narsaning o‘xshagan narsa orqali ifodalanishidir. M-n, gulday qiz o‘rniga gul, la’lday lab o‘rniga la’l so‘zlarining o‘zini qo‘llash. Shuning u-n I. ko‘chim va majoz deb ham yuritiladi. N. ijodida I. mahorat b-n qo‘llanilgan. M-n:

Ko‘ngulni chok-u bag‘irni shikof istarima
Aning qilichi bila xanjari erur bois.

Bu yerda qilich deganda ma’shuqaning qoshi, xanjar deganda kiprigi ko‘zda tutilyapti. Ya’ni, ko‘nglimni pora-yu bag‘rimni chok istashimga ma’shuqa qoshining qilichi-yu kiprigi xanjari sababdir.

Yoki:

Og‘zidin achchig‘ so‘z aytib,
zohir etsa zahrchashm,
Ayb emastur pista sho‘r-u
tong emas bodom talx.

Birinchi misrada og‘zidan achchiq so‘z chiqib, ko‘zi zahar sochsa, degan fikr ikkinchi misrada pistaning sho‘rligi ayb emasligi-yu bodomning achchiqligi hayron qoldirmasligi haqidagi fikr b-n asoslanar ekan, bunda I. tarzida pista og‘izni, bodom ko‘zni bildirib kelmoqda.

Quyidagi baytda g‘uncha ham og‘izni, ham ko‘ngilni tamsil etmoqda:

Ikki g‘unchang ermas, ey gulchehra, teng,
Og‘zing asru tor-u ko‘nglung asru keng.

Y.Is’hoqovning yozishicha, I. o‘z xususiyatiga ko‘ra ikkiga bo‘linadi: ochiq va yopiq I. agar o‘xshatish obyekti, ya’ni o‘xshatilgan narsa tilga olinmay, faqat o‘xshagan narsaning o‘zi zikr etilsa, bu ochiq I. bo‘ladi. M-n:

Furqat o‘ti dofeyi dog‘ o‘rtamakdur demakim,
O‘rtagan jonim ul oy dog‘i firoqidur hanuz.

Bu yerda “oy” so‘zi ma’shuqa ma’nosida kelyapti.

Yopiq I.da esa o‘xshatilgan narsaning o‘zi ham tilga olinmay, uning biror sifati, xulq-atvori, uzv-a’zosi izofat sifatida keltiriladi. M-n:

Soqiyo, may tut, mug‘anniy,
navhayi ohangni chol, –
Kim, sipohi umrni o‘lmish ko‘si
rihlat cholg‘udek.

Baytning ikkinchi misrasidagi sipohi umrim I. bo‘lib, shoir umrni shoh yoki lashkarboshiga, o‘tayotgan umrning oy va yillarini esa yuksak mahorat b-n askarlarga o‘xshatgan. A.Hojiahmedovning yozishicha, I. “tashbehdan kuchli sanaladi. Zero, “ey gul kabi go‘zal mahbuba” ifodasidan ko‘ra, “ey gul” iborasi kuchliroq, ta’sirchanroq jaranglaydi”.

Ma’lum bo‘ladiki, I. muallifdan teran mushohada va nozik kuzatishni, o‘quvchidan esa o‘tkir zehn va topqirlikni taqozo etadigan o‘ziga xos murakkab badiiy san’atdir.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1–4-жилдлар. – Т., 2011;*

Шамси Қайси Розий. Ал-мўъжам. – Душанбе, 1991; Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъ ус-санойиъ (Форсчадан А.Рустамов тарж.). – Т., 1981; Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға // "Ўзбек тили ва адабиёти", 2002, № 5; Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т., 2006; Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Т., 2001; Ҳожиаҳмедов А. Шеър санъатларини биласизми? – Т., 2001.

Y.I., E.O.

ISTIXROJ (ar. − chiqarish, chiqarib olish) − arab yozuvidagi tashbeh bo‘lib kelgan harflar asosida yangi so‘z hosil qilishga asoslangan harfiy san’at. U kitobat san’ati vositasida yuzaga keladi. Agar kitobat san’atida inson uzvlari arab harflariga o‘xshatilsa, I.da o‘xshatilgan harflar yig‘indisi yangi so‘z yaratilishiga xizmat qiladi. M-n, quyidagi baytda ma’shuqaning halqa-halqa zulfini "jim" (ج) va "dol" (د)ga o‘xshatish barobarida, bu ikki so‘z birikmasidan "jid" (sa’y-harakat, g‘ayrat) so‘zi hosil bo‘lmoqda:

Iki zulfung ko‘ngul domi, ne yanglig‘
asray ul qushni,
Ani tutmoqqa jidd ma’lum o‘lur
chun "jim"-u "dol"ingdan.

Maz.: Ko‘ngil qushini ikki zulfing domidan qanday asrayki, u ikki "jim"-u "dol"ing uni tutish u-n qattiq bel bog‘labdi.

Mana bu ruboiysida esa "jim"ga o‘xshash ikki zulfing, alifday mavzun qadding, nun kabi qoshing va "jim" hamda "nun" harflar ustidagi ikki nuqta kabi xoling aslida men u-n jondir, degan fikr ilgari surilmoqda, zero, "jim", "alif" va "nun" harflari yig‘indisidan "jon" so‘zi hosil bo‘ladi. Shoir esa harflarni mahbubasi uzvlariga tashbeh qilgan holda ular mening jonim asosidir, deyish b-n harfiy so‘z o‘yiniga teran ma’no yuklamoqda:

Jonimdagi "jim" ikki dolingg‘a fido,
Andin so‘ng "alif" toza niholingg‘a fido,
"Nun"i dag‘i anbarin hilolingg‘a fido,
Qolg‘an iki nuqta ikki xolingg‘a fido.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Т., − 2001; Қурбонов А. Навоий ғазалларида истихрож санъати // "Ўзбек тили ва адабиёти", 2014, №1.*

E.O.

ISTISHOD (ar. – guvohlik istash, dalil keltirish) – shoirning o‘z fikrini tasdiqlash yoki boshqa biror munosabat b-n taxallusiga murojaat qilishidan iborat badiiy san’at. N. lirikasida ham bu san’atning bir qancha namunalarini uchratishimiz mumkin. M-n:

Ey Navoiy, yig‘lamoq ohimg‘a taskin
bermadi,
Vah, bu ne o‘tdurki, yo‘q ta’sir
to‘fondin anga.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988.*

M.I.

"ISTIQLOL DAVRI O‘ZBEK NAVOIYSHUNOSLIGI" – Alisher Navoiy nomidagi Xalqaro jamoat fondi tomonidan O‘zbekiston Fanlar akademiyasi, Badiiy akademiya, Madaniyat va turizm vazirligi, Yozuvchilar uyushmasi

hamkorligida yaratilib, “Tamaddun” nashriyotida bosmadan chiqqan buyuk mutafakkir shoir tavalludining 580 hamda O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 30 yilligiga tuhfa sifatida chop etilgan 30 jildlik kitoblar to‘plami. Nashrga tayyorlovchilar: O.Davlatov, D.Yusupova. Mazkur to‘plam ilmiy-nazariy, ma’naviy-tarixiy jihatdan beqiyos ahamiyatga ega bo‘lib, navoiyshunoslik ilmining istiqbolini ta’min etuvchi qo‘llanma vazifasini bajaradi.

1-jilddan A.Qayumovning “Nodir sahifalar” nomli ilmiy maqolalar to‘plami, “Alisher Navoiy” risolasi va S.G‘aniyevaning “Navoiy nasri nafosati”, “Navoiy yodga olgan asarlar” kitoblari o‘rin olgan.

2-jild A.Hayitmetovning “Navoiyxonlik suhbatlari” A.Abdurashidovning “Buyuk beshlik saboqlari” monografiyalaridan tashkil topgan.

3-jildga N.Mallayevning “So‘z san’atining gultoji” monografiyasi, B.Akramovning “Fasohat mulkining sohibqironi” risolasi, Sh.Sharipovning “Lison ut-tayr” haqiqati” kitobi kiritilgan.

4-jilddan A.Rustamiyning “Hazrati Navoiyning ma’naviy olami”, S.Hasanovning “Navoiyning yetti tuhfasi”, M.Hakimovning “Alisher Navoiy asarlarini ko‘chirgan xattotlar” kitoblari o‘rin olgan.

5-jild A.Hojiahmedovning “Navoiy aruzi nafosati”, O.Madayevning “Navoiy suhbatlari” tadqiqotlarini o‘z ichiga oladi.

6-jild H.Qudratullayevning “Navoiyning adabiy-estetik olami” monografiyasi va R.Vohidovning “Alisher Navoiy va ilohiyot” risolasidan iborat.

7-jild N.Komilovning “Xizr chashmasi” monografiyasi, N. g‘azallari sharhiga bag‘ishlangan “Ma’nolar olamiga safar” kitobi, “Ilova” qismi olimning “Ahli kamol korxonasining komili”, “Ajrim qiluvchi ko‘zgu”, “Odil podshoh haqida besh tashbeh”, “Adolat davlat poydorligining asosi”, “Ustoz va yosh iste’dod” kabi maqolalari hamda N.ning “Nasim ul-xuld” qasidasi matni va nasriy tarjimasidan tashkil topgan.

8-jilddan M.Imomnazarovning XXI asr navoiyshunosligi dolzarb masalalariga doir tadqiqotlari o‘rin olgan.

9-jild M.Muhiddinovning “Ko‘ngil hayratlari” monografiyasidan tashkil topgan.

10-jildga H.Solihovaning N. ijodining uyg‘ur adabiyotiga ta’siri o‘rganilgan monografiyasi va M.Rashidovaning “Alisher Navoiy “Nazm ul-javohir” asarining matniy tadqiqi” kitobi kiritilgan.

11-jild I.Haqqulning 4 kitobdan iborat “Navoiyga qaytish” nomli tadqiqotlar to‘plamini o‘z ichiga oladi.

12-jildda Q.Sodiqovning “Alisher Navoiy asarlari tilining fonetikasi” nomli monografik ishi, V.Rahmonovning “Mumtoz so‘z badiiyati” maqolalar to‘plami, I.Azimovning “Alisher Navoiyning nasriy asarlarida kesim markazli bir bosh bo‘lakli gaplarning shakliy va mazmuniy xususiyati” nomli dissertatsiyasi jamlangan.

13-jildda B.To‘xliyevning “Alisher Navoiy va yoshlar tarbiyasi”, O.Madaliyevaning “Alisher Navoiy qo‘lyozmalarining tarkibiy-qiyosiy tadqiqi” nomli monografiyalari mavjud.

14-jild N.Jumaxo‘janing “Satrlar silsilasidagi sehr”, “Qaro ko‘zum...” g‘azali tadqiqi” risolalari hamda A.Habibullayevning “Navoiy pandnomasi” deb nomlangan kitoblaridan tuzilgan.

15-jildga Z.Isomiddinovning “Shavqi navo” nomli kitobi, M.Abdulhakimning “Hayrat mezoni” sharhlar majmui va K.Rahimovning “G‘iyosiddin Xondamir hayoti va ijodi hamda uning “Makorim ul-axloq” asari haqida” monografiyalari kiritilgan.

16-jild S.Olimning “Naqshband va Navoiy” hamda “Lison ut-tayr”ning qiyosiy poetikasi: sintez naziraviylik va tarjimaviylik” nomli tadqiqotlariga bag‘ishlangan.

17-jild D.Salohiyning “Navoiyning she’riy uslubi masalalari”, F.Karimovaning “O‘zbek adabiyotida debocha” va M.Asadovning “Navoiy ijodida soqiynoma” deb nomlangan tadqiqotlaridan tuzilgan.

18-jildga Sh.Sirojiddinovning “Navoiy zamondoshlari xotirasida” nomli risolasi hamda “Alisher Navoiy. Manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili” monografik tadqiqoti kiritilgan.

19-jild A.Erkinov qalamiga mansub “Oqquyunli muxlislar devoni”, “Xorijiy navoiyshunoslik” nomli ilmiy asarlaridan iborat.

20-jildga N.Jabborovning “Maoniy ahlining sohibqironi” hamda A.Qurbonovning “Farhod va Shirin”: badiiyat va g‘oyalar olami” kitoblari jamlangan.

21-jilddan o‘rin olgan “Alisher Navoiy “Xamsa”sida xronotop poetikasi” tadqiqoti U. Jo‘raqulovga, “Navoiy davri tabobati” kitobi M. Hasaniy va S.Karimovalarga tegishli.

22-jild. S.Rafiddinovning “Navoiy va Islom ma’rifati” maqola va lug‘atlar to‘plami, B.Eralining “Majoziy muhabbat haqiqatlari” hamda A. Hasanxon Yahyoning “Alisher Navoiy islomiy tasavvuf she’riyati namoyandasi” nomli risolalaridan tashkil topgan.

23-jildga E.Ochilovning “Bir hovuch dur” nomli sharhlar kitobi hamda olimning N. asarlarida uchraydigan atama, obraz, ramz va istilohlar tavsiflangan lug‘ati kiritilgan.

24-jild K.Mullaxo‘jayevaning “Alisher Navoiy g‘azaliyotida tasavvufiy timsol va badiiy san’atlar uyg‘unligi”, I.Ismoilovning “Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostonining qiyosiy tahlili”, O.Tojiboyevaning “Alisher Navoiy “Xamsa”sining nasriy bayonlari: tamoyil, mezon va uslub” nomli monografiyalaridan iborat.

25-jilddan H.Eshonqulovning “Alisher Navoiy she’riyatida samoviy timsollar” deb atalgan kitobi, O.Jo‘raboyevning “Mumtoz adabiyotda mug‘anniynoma”, “Tarix va Navoiy” risolalari hamda X.Abdurashidning “O‘zbek dramaturgiyasida Alisher Navoiy obrazining badiiy talqini”, A.Malikovning “Xamsa”ni fenomenologik tadqiq qilish masalasi” tadqiqotlari o‘rin olgan.

26-jild “Navoiy ijodida faqr talqini va faqir obrazi” nomli N.Ramazonovning monografiyasi hamda M.Rajabovaning “Navoiyning she’riy durdonasi”, N.Bekovaning “Alisher Navoiyning hamd g‘azallari va “Ruh ul-quds” qasidasining badiiyati” nomli tadqiqotlaridan iborat.

27-jildda D.Yusupovaning “Alisher Navoiy “Xamsa”sida mazmun va ritmning badiiy uyg‘unligi” nomli kitobi, shuningdek, turli yillarda N.ga bag‘ishlab yozgan ilmiy maqolalari hamda shoir devonlaridan tanlab olingan g‘azallarning tahlili berilgan.

28-jilddan O.Davlatovning “Alisher Navoiy she’riyatida Qur’on oyatlari va hadislarning badiiy talqini” nomli monografiyasi hamda “G‘.S.” devonidagi g‘azallarning nasriy bayoni, lug‘at, sharh va izohlaridan iborat “Ma’nolar maxzani” kitobi o‘rin olgan.

29-jildda Z.Mamadaliyevaning “Lison uttayr” obrazlari: ramz va majoz olami”, S.O‘tanovaning “Alisher Navoiy g‘azaliyoti rang simvolikasi” nomli monografiyalari hamda S.Jumayevaning “Alisher Navoiy she’riyatida ramziy raqamlar talqini” risolasi jamlangan.

30-jilddan Navoiy ijodi haqida mulohazalarini bayon etgan shoir, yozuvchi, tarjimon, jurnalist va adabiyotshunoslarning maqolalari o‘rin olgan.

Shubhasiz, “ISTIQLOL DAVRI O‘ZBEK NAVOIYSHUNOSLIGI” 30 jildligi O‘zbekistonda 30 yil mobaynida n.shunoslik yo‘nalishida erishilgan yutuqlarni yaqqol namoyon etuvchi o‘ziga xos jamlanmadir.

S.O‘.

ISTIG‘NO – g‘ani, ya’ni boy kalimasi b-n asosdosh bo‘lib, boy bo‘lmoq, boshqalarga muhtoj emaslik, ehtiyojsizlik ma’nolarida qo‘llanadi:

Ey g‘aniy, ushshoqdin mustag‘niy o‘ldung,
bilmading,
Kim fano ahlig‘a sultonlig‘din
istig‘no emish.

Tariqatdagi solikning esa Allohning o‘zi b-n kifoyalanib, Yaratganning o‘zigina unga yetarli ekanligiga ishonib, boshqasiga ehtiyoji yo‘qligi I.dir. “B.V.” devonidan olingan quyidagi bayt ham shunga ishora qiladi:

Chu ishq bodiyasi keldi dashti istig‘no,
Shah o‘ldi zor anga gar gado erur munis.

Shayx Abu Nasr Sarroj “Al-Luma’” asarida shunday deydi: “Kimki o‘zini Allohga qanchalar ehtiyojmand sezsa, u Alloh bilan shunchalar boy bo‘ladi”. Demak, solikning xalqqa ehtiyojsizligi faqat Alloh taologa ehtiyojmandligi b-n belgilanadi. Tariqat ahli nafs tarbiyasida ma’lum usul-u arkonlardan foydalangan. O‘zlarining ma’naviy yo‘l va hollariga ham nomlar berishgan. Shulardan biri I. vodiysi va g‘aniylik holidir. N ham “L.T.” dostonida qushlarning Simurg‘ni topishda qat’ etish u-n zarur vodiylarni sanaydi. Shulardan biri I. vodiysidir. N. Talab, Ishq, Ma’rifat, Tavhid, Hayrat, Fano vodiylari qatori I. vodiysi haqida ham to‘xtaladi. Dostonda “Istig‘no vodiysining bayoni” nomli maxsus bob keltirilib, bu manzilning sir-sinoati va solikning hollarini izohlaydi:

Vodiy ondin so‘ngra Istig‘nodurur,
Onda teng a’lo-u gar adnodurur...

Munda yakson keldi yo‘q-u bor ham,
Ahli din-u zumrayi kuffor ham...

N. asarning yana bir o‘rnida “Istig‘no tariqi adosida munojot” nomli fasl ajratadi. “L.T.” kompozitsiyasi talabi b-n mazkur boblardan so‘ng ham hikoyatlar keltiriladi. I. holining mohiyatini ko‘rsatuvchi voqealardan biri Ibrohim (a.s.)ning Namrud tomonidan o‘tda yoqilishidir. N. islom olamida mashhur voqeani bayon qilar ekan, Ibrohim (a.s.)ning I. holini tushuntiradi:

Hukm bo‘ldikim, yetishti Jabrail,
O‘tqa yetkon chog‘da dedi: – “Ey Xalil!

Oytqilkim ehtiyojing negadur?
Lutf-u ehsondin mijozing negadur?

...Dedi ulkim: – “O‘t manga ro‘zi qilur,
Ehtiyojim ne ekonni ul bilur.

Yo‘q sanga xud ehtiyojim bu nafas,
Toki zohir aylagaymen multamas”.

Borcha holimda o‘zung muhtoj qil,
Eldin istig‘no nasibim aylagil.

Ad.: *Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик, 3-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

Z.R.

ISTIHFOM (ar. – so‘ramoq) – shoirning o‘y-fikrlari, tuyg‘u kechinmalarini so‘roq shaklida ifodalashiga asoslangan ma’naviy san’at. Bu haqda ikki xil qarash mavjud: ba’zilar uni javob talab qilmaydigan so‘roq (ritorik so‘roq) shaklida bo‘ladi, deb hisoblasalar, ba’zilar u mazmunan so‘roq gap tarzida bo‘ladi, deydilar. Bizningcha, har ikkalasi mazkur san’atning ikki xil ko‘rinishi. Chunki I.dan maqsad so‘roq shakli vositasida tasvirda ta’sirchanlikka erishishdir. Boshqacha aytganda, bu san’atda so‘roq maqsad emas, balki vosita. M-n:

Kimga qildim bir vafokim,
yuz jafosin ko‘rmadim,
Ko‘rguzub yuz mehr,
ming dard-u balosin ko‘rmadim.

Agar shoir shuni “ko‘rdim” tarzida ifodalasa, g‘azal bunchalik ta’sirchan chiqmas edi. Holbuki, fikr aynan “ko‘rdim”ni taqozo qilyapti. Ya’ni: “Kimga bir vafo qilgan bo‘lsam, evaziga yuz jafo ko‘rdim, kimga yuz mehr ko‘rsatgan bo‘lsam, o‘rniga ming dard-u balo ko‘rdim”, – demoqda. Lekin u o‘z fikrini so‘roq tarzida tuzish b-n uning badiiy-estetik ta’sirchan chiqishiga erishgan.

Sayyid Hasan Ardasher vafoti munosabati b-n yozgan marsiya-tarkibbandida bu san’atning betakror namunalarini yaratadi:

Kimdakim dog‘i vafo ko‘rsa, shahid aylamasa,
Lolasining ne uchun qonga bo‘yalmish kafani?..

Rostlar bo‘lsa aning arsasida barxurdor,
Javrdin, bas, nega bebarlik erur sarvi fani?..

Qaysi dilxastaga yetkurdi farog‘at no‘she,
Kim nasibi yana yuz neshi balo aylamadi?

Yoki quyidagi ruboiysida ham tasdiq gapni so‘roq shaklida ifodalamoqda:

Jonbaxsh labing chashmayi hayvonmu emas?
Hajridin aning ichim to‘la qonmu emas?
Har qatrayi qon la’li Badaxshonmu emas?
Har porayi la’li javhari jonmu emas?

Aslida shoir aytmoqchiki:

Jonbaxsh labing chashmayi hayvon,
Uning hajrida ichim to‘la qon.

Bu qonning har qatrasi la’li Badaxshon,
La’lining har porasi javhari jon.

Mana bu ruboiyda ham aslida so‘roq vositasida o‘zining og‘ir ahvolini tasvirlamoqda:

Munglug‘ boshim ostidag‘i toshimnimu dey?
Tosh ustidagi g‘arib boshimnimu dey?

Hasrat suyidin ko‘zimda yoshimnimu dey?
O‘lmakdin sa’broq maoshimnimu dey?

I. savol berish asosiga ham qurilishi mumkin.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Т., 2001; Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2010.*

E.O.

ISFIZOR – Eronning Seyiston viloyatidagi joy. Qadimiy tarixga ega. Burungi zamonlarda (Saljuqiylar, g‘uriylar davrlarida) shahar bo‘lgan. Keyinchalik o‘z mavqeyini yo‘qotgan. Temuriylar davriga oid manbalarda qishloq, kent sifatida tilga olinadi. Mazkur aholi punktining nomi N. davri b-n bog‘liq manbalarda ham uchraydi. Jumladan, tarixiy asarlarda 1498-y.da Sulton Husayn o‘g‘li Badiuzzamonga qarshi harbiy harakatlar chog‘ida o‘z qo‘shinining bir qismini I. orqali yuborgani qayd etiladi. Qo‘shin tarkibida Nizomulmulkka qarashli odamlar ham bo‘lgan. O‘sha paytda Sulton Husayn mirzo Mo‘min mirzo voqeasi tufayli Nizomulmulk va uning odamlarini jazolash niyatida edi. Bu xususda u N. b-n kengashgan va N. ma’qullagandan so‘ng ular I.da hibsga olingan.

Ulug‘ shoir va davlat arbobining mamlakatni obod qilishga qaratilgan faoliyati I.ni ham chetlab o‘tmagan. U bu yerda Jom’e masjidi qurdirgan.

Ad.: *ЎзМЭ. 4-жилд. – Т., 2002; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985.*

Q.E.

IS’HOQ (a.s.) – payg‘ambar. Qur’oni Karimda I. (a.s.)ning nomi 17 oyatda zikr qilingan. N. “T.A.H.” asarida shunday yozadi: “Is’hoq (a.s.) payg‘ambari mursaldir. Haq taolo uni Shom (Suriya) ahlig‘a yubordi va u Shom xalqini Alloh taolo ibodatiga dalolat qildi. Uning amakisining qizi Rufaqodan ikki o‘g‘li bor erdi. Birining ismi Iys, yana birining ismi Ya’qub”.

I. (a.s.) va Ismoil (a.s.)lar ota-onalari keksaygan paytda tug‘ilgan farzandlardir. “Menga keksalik paytimda Ismoil va Is’hoqni hadya qilgan Allohga hamd-u sanolar bo‘lsin” (“Ibrohim” surasi 39-oyat).

I. (a.s.) farzandlaridin Iys ko‘proq ov qilishga moyil bo‘lgan Ya’qub (a.s.) esa qo‘y boqish (podachilik) b-n shug‘ullangan. Shom mamlakatida I. (a.s.)ning ko‘zlari nobino (ko‘r) bo‘ldi. I. (a.s.)ning Iysga nisbatan muhabbati baland edi, xotini Rufaqoning esa Ya’qubga mehri kuchli edi. Bir kuni I. (a.s.)ning ko‘ngliga qovurilgan go‘sht yeyish mayli keldi. Iysni chaqirib, o‘zining orzusini unga izhor qildi. Iys o‘q-yoylarini olib, tog‘ tomon ovga ketdi. Rufaqo bu holatdin voqif bo‘lub, Ya’qub (a.s.)ga vaziyatdan xabar berdi va darhol bir semiz qo‘zini qovurib, I. (a.s.) huzuriga olib kirishga undaydi.

Ko‘zi ko‘r bo‘lgan ota qovurilgan go‘shtni kim olib kirganini bilmadi va Ya’qubni Iys deb o‘yladi. Ovqatlangach, ota o‘g‘liga uzundan uzoq duo qildi va o‘g‘lining zurriyotidan ko‘plab anbiyolar chiqishini tilaydi. Bu duo mustajob bo‘lib, Ya’qubning avlodlaridan ko‘plab payg‘ambarlar chiqadi.

So‘ngra, Iys ham otasi istagan taomni hozirlab keladi. Shunda I. (a.s.) Iysga “ko‘p sultonlar sening naslingdan chiqsin”, deb duo qiladi. Ba’zi tarixchilarning aytishicha, “Sobir payg‘ambar ham sening naslingdan bo‘lsin”, deb duo qiladi. Shu sabab Ayyub (a.s.) Iys avlodidan chiqqan.

Biroq shu vaziyat tufayli aka-uka o‘rtasiga adovat tushadi. Ya’ni Iysda ukasi Ya’qub (a.s.) ga xusumat paydo bo‘ladi. Shu sabab Ya’qub (a.s.) uning biror shumlik qilishidan xavfda yurar edi. Buni fahmlagan I. (a.s.) vafotidan oldin Ya’qub (a.s.)ga tog‘asi Lubnon yurtiga ketishga ruxsat beradi. Shuning u-n Ya’qub (a.s.) Kan’on yurtiga hijrat qiladi. I. (a.s.) umri bir yuz saksonga yetganda vafot etadi va Ibrohim (a.s.) yoniga dafn qilinadi. Ayni shu yili Yusuf (a.s.) Misr azizi bo‘lgan edi. N. I. (a.s.) zikri so‘nggida quyidagi baytni keltirib o‘tadi:

Xizrg‘a nasib o‘lsa hayvon ziloli,
Skandarga ichmakka yo‘q ehtimoli.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Носируддин Бурҳониддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. 2 жилдлик, 1-жилд. – Т., 1999; Пайғамбарлар тарихи (Исломият тарихи). – Т., 2014; Муҳаммад Саййид Тантовий. Пайғамбарлар тарихи (Қуръони Карим қиссалари). I-II. – Т., 2014; Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Ҳадис ва Ҳаёт. 20-жуз. Анбиёлар қиссаси. – Т., 2023.*

S.R.

IS’HOQ OTA – N. “N.M.” tazkirasida tilga olgan 10 nafardan ortiq ota nisbasi b-n mashhur shayxlardan biri. U Ismoil ota avlodiga mansub, Yassaviya tariqati shayxlaridan biri. Ismoil ota vafoti oldidan Is’hoq otani o‘z “qoim maqom-”iga qo‘ygan. Bu haqda N. tazkirada quyidagicha juda qisqa tarzda ma’lumot bitgan: “Chun atosig‘a xalaf-u xalifa va qoimi maqom erdi. Murid-u as’hobqa peshvoliq qilib, atosi zikr-u avrodig‘a qavm ko‘rguzubdur va o‘z zamonida muqtado ermish”.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

B.R.

IT – N. asarlarida uchraydigan ramziy obrazlardan biri. Ma’lumki, Sharq adabiyotida I. ko‘pincha sadoqat ramzi hisoblanadi. Bu obrazning vujudga kelish tarixini As’hobi Kahf safidan joy olgan I. b-n bog‘laydilar. Sadoqat, xoksorlik timsoli sifatida I. tasavvuf she’riyatining asosiy obrazlaridan biriga aylangan.

“L.M.” dostonida ham I. timsoli N. badiiy niyatini ochib berishda muhim o‘rin tutgan. Jangda g‘olib bo‘lib turgani holda Navfalning qo‘shinini qaytarib olib ketganini uning hiylasi sifatida tushunib, to‘satdan hujum qilishidan xavfsiragan Hay qabilasi boshqa yoqqa ko‘chadi. Layli qabilasida esa Majnun bir qo‘tir I.ni ko‘rib, ko‘ylagini yirtib, uning yaralarini bog‘lab qo‘yadi va u b-n arzi hol qiladi. Bo‘yningga zanjir bog‘lagan, boshingga suyak b-n urgan bo‘lsa-da, sen Layli eshigida sadoqat b-n posbonlik qilgansan, yana uning eshigiga yo‘l topsang, mening nomimdan ham uning ostonasini o‘pib qo‘y, deb zorlanadi.

Og‘zig‘a ko‘zini surtubon ko‘p,
Dediki: “Ayog‘i tufrog‘in o‘p.
Ikkisini tirnog‘ing bila o‘y,
Bir yerdaki ul ayog‘ bosar qo‘y”.

Majnunning I.ni bu qadar ulug‘lashi naqshbandiya ta’limoti g‘oyalari b-n ham bog‘liq. Ma’lumki, “L.T.”da Bahouddin Naqshbandning bu vafo ahli oyog‘idan nishon deb bir I.ning oyog‘i izini o‘pgani haqidagi rivoyat keltirila-

di. Majnunning o‘zini I.ga o‘xshatishi, hatto I. dan ham battar, deb bilishi b-n bog‘liq misralar “L.M.”ning boshqa o‘rinlarida ham keladi:

Itlik menga xatm erur jahonda,
Itmen men, ulusqa ormen men.

N. boshqa asarlarida ham I. obrazi ko‘p uchraydi. Bu o‘rinda “T.A.” qasidasidagi o‘zini I.ga nisbat bergani bayti b-n bog‘liq bahs-u hikoyatlarni eslashning o‘zi kifoya.

Ad.: *Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

M.A., E.O.

ITTIFOQ (ar. – o‘zaro muvofiqlashish) – she’rda shoir taxallusining ham lug‘aviy ma’nosida, ham taxallus sifatida ishlatilishiga asoslangan ma’naviy san’at. Sharq adabiyotida bu san’atning qo‘llanish tarixi juda uzoq davrlarga borib taqalsa-da, badiiy san’at sifatida u keyingi davrlardagina tilga olina boshladi. Bunda shoir o‘z nomi yoki taxallusini she’rda shunday mahorat b-n qo‘llaydiki, bir paytning o‘zida undan ham lug‘aviy, ham istilohiy ma’no anglashiladi. Lekin so‘zning lug‘aviy ma’nosi birinchi o‘ringa chiqib qolganidan, o‘quvchi ham dastlab uni o‘z ma’nosida tushunadi. So‘zni ikki ma’noda tushunish u-n o‘quvchidan zukkolik talab qilinadi.

Albatta, har qanday nom va taxallus ham ikki ma’noga ega bo‘lmagani yoki qo‘llanilish doirasi chegaralanganidan I. san’ati muayyan cheklangan jihatlarga ega. Aytaylik Gado, Furqat, Amiri(y), Nihon kabi taxalluslar ikki ma’noda ko‘p ishlatilsa, Atoiy, N., Bobur taxalluslari haqida bunday deb bo‘lmaydi.

V.Rahmonovning yozishicha, I. san’ati qo‘llanganda maqta’da aslida shoir taxallusi qatnashmaydi, balki uning lug‘aviy ma’nosi ishtirok etadi, zakiy o‘quvchi esa matndan uning muallifini ham bilib qoladi. Binobarin, I. san’ati bo‘lib kelgan taxalluslarni kichik harfda yozish kerak, aks holda mazmun mavhumlashib, ushbu san’at yo‘qqa chiqadi. Chindan ham, bunda o‘quvchining xayoli taxallusga ketib, so‘zning lug‘aviy ma’nosi unutiladi.

V.Rahmonov yana ba’zida asar nomi va qahramon ismi ham I. san’ati bo‘lib kelishi mumkinligini aytadi va fikrini aniq misollar asosida dalillaydi.

Ad.: *Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Т., 2001; Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т., 2006; Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2010.*

E.O.

IXLOSIYA – N. o‘z mablag‘i hisobidan qurdirgan (1477–78) binolardan biri – madrasa, bir tomondan masjid va “Dor ush-shifo”, ikkinchi tomondan Injil arig‘ining yonida Gavharshodbegim madrasasiga o‘xshatib qurilgan. I. naqshinkor bezaklari, yonidagi Injil arig‘i atrofini salqin qilib turishi b-n talabalarga yaxshi kayfiyat bag‘ishlagan. Madrasada Qozi Nizomiddin Muhammad, Mavlono Shamsiddin Muhammad, Mavlono Kamol Mas’ud Shirvoniy, riyoziyot fanidan Mavlono Mirmurtoz va boshqa Hirotdagi yetuk olimlar dars bergan. Mazkur madrasada ta’lim olgan talabalardan ko‘plari mudarrislik mansabiga tayin qilinganlar. M-n, Mavlono Isomiddin Ibrohim Shohrux Mirzo madrasasiga, Mavlono Hoshimiy Xoja Kamoliddin Husayn madrasasiga mudarrislik qilganlar. Nizomiddin Muhammad esa N. taklifi b-n Hirot shahrining qozisi etib tayinlanadi.

I. madrasasi o‘z davridagi boshqa madrasalardan mustahkam binosi va qisqa vaqt ichida iqtidorli talabalarga ko‘p va soz ilm berishi b-n ajralib turgan. N. u haqda: “...Va bu madrasag‘akim, xulusi ixlosdin yasaldi – “Ixlosiya” ot qo‘yildi...” deydi.

I. madrasasi hozirgi vaqtgacha saqlanib qolmagan.

Ad.: Алишер Навоий. Вақфия. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.

Muh.A.

IXTIYORIDDIN QAL'ASI (Olaqo'rg'on) – Hirot shahridagi qadimiy qal'a. Shaharning shimol tomonida joylashgan. Bir tomoni shahar devoriga, bir tomoni ot bozoriga tutash bo'lgan. Dastlabki binosi xom g'ishtdan bo'lib, uni Kurdlar sulolasining vakillaridan Malik Faxriddin qurgan.

Amir Temur Hirotni olganda (1381), shahar devorlarini buzdirgan, lekin qal'aga tegmagan. Keyinchalik Shohrux mirzo uni buzdirib, o'rniga tosh va g'ishtdan mustahkam qo'rg'on qurdirgan. Bunga bag'ishlab, forscha ta'rix yaratilgan. Uning tarjimasi quyidagicha:

Yaxshi zamonda-yu qutli tole'da,
Bu oliy qal'aga asos soldilar,

Payg'ambarning Bathodan Yasribga
hijratidan keyin,
"Zod", "yo" va "he" yili ikkinchi rab'ida.

Bu ta'rixdan 1415-milodiy yil chiqadi.

O'ta mustahkam bo'lgani sababli I.Q. zindon vazifasini bajargan, shuningdek, hukmdorlarning xazinasi ham shu yerda saqlangan. Ushbu qal'a ko'p mudhish voqealarning ham guvohi bo'lgan. Jumladan, Muhammad Mo'min mirzoni Astrobodda asir qilib olganlaridan so'ng shu yerga olib kelib, qamab qo'yganlar va shahzoda shu qal'ada qatl etilgan. Odamlarning fikrini chalg'itish maqsadida jallodlar uning jasadini pastga uloqtirib yuborgan (1497).

N. faoliyatida ham I.Q. b-n bog'liq o'rinlar bor. Tarixiy manbalarda N.ning Mirzo Abulxayr isyonini bostirgani va uni qo'lga tushirib, I.Q.ga qamab qo'ygani qayd etilgan (1472). Ma'lumki, ushbu isyon vaqtida Husayn Boyqao Balx yurishida edi. Podshoh yo'q bo'lgani sababli N. isyonni bostirish u-n chora-tadbirlar ko'rishga majbur bo'lgan. N. I.Q. atrofini obodonlashtirish b-n ham shug'ullangan. Manbalarda uning qal'a oldida bir hovuz qurdirgani haqida yozilgan.

Ad.: Абдураззоқ Самарқандий. Матлаъи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. – Т., 1968; Низомиддин Шомий. Зафарнома. – Т., 1999; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985.

Q.E.

IXTIRO (ar. – ijod qilish, kashf etish, yangi narsani vujudga keltirish, ilgari o'xshashi bo'lmagan narsani hosil qilish; yangilik) – N.ning "D.F."-dagi buyuk salaflariga tatabbu' bo'lmagan, yangi mazmun-mundarijadagi g'azallariga qo'yilgan nom. Ularning adadi 8 ta bo'lib, shundan 2 tasi "ixtiro'i" (ixtiro qilingan) deb nomlanadi. M-n:

Zi ishq hast ba dil bor sad hazor maro,
Hano'z shukr buvad sad hazor bor maro.

Tarj.: Ko'nglimda ishq tufayli yuz ming yuk (ranj, g'am) borligiga qaramay, hanuz yuz ming bor shukr qilaman.

Bu yerda san'atkor shoir "bor sad hazor" va "sad hazor bor" iboralari vositasida so'z o'yini qilgan: "bor" so'zi "yuz ming" birikmasi oldida "yuk" (bu yerda ranj-u g'am), ortida esa "marta, karra" ma'nolarida kelyapti. Bu N.ning mazmun ifodasidagi shakliy yangiligidir. "Bor" so'zining ikki joyda ikki ma'noda ishlatilishida tajnis san'ati mavjud. Ayni paytda "bor" so'zining birinchi misrada "sad hazor" birikmasi oldida, ikkinchi misrada esa undan keyin kelishida tardi aks san'atini ham ko'ramiz: "bor sad hazor" – sad hazor bor".

N. "M.N." tazkirasida qator shoirlar, xususan, Husayn Boyqaroning shakl va mazmundagi ixtirolari xususida fikr yuritadi. Jumladan, Mavlono Kotibiyga ta'rif berar ekan, *"qasoidda balki ixtiro'lar ham qildi va ko'p yaxshi keldi"* deb yozadi. Husayn Boyqaroga bag'ishlangan 8-majlisida shoh-shoirning qator qofiya va radiflarini uning o'ziga xos ixtirolari sifatida baholaydi: "Ul Hazratning xossa ixtirootidin bu to'rt she'rdurkim, "o'zgacha" lafzin radif qilib, qofiyalari

har qaysining o‘zgacha voqe’ bo‘lubtur”. Yoki: “Qofiya va radif ul Hazratning bu fanda mujtahid tab’ining ixtiro’idur” va h.k.

Ad.: *Алишер Навоий. Девони Фоний. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

E.O.

ISHVA – N. she’riyatida faol qo‘llangan so‘z yoki timsollardan biri. Yorning nozli, maftun etuvchi harakati. Irfoniy adabiyotda jamol tajallisi. M-n:

Ishva aylab elga, ohimdin tavahhum qilmading,
Tishlabon la’lingni, jonimg‘a tarahhum qilmading.

Lirikada ma’shuqaning ishva qilib, o‘ziga rom etishi ba’zan salbiy xarakterda ham ifoda etilib, *ishvagar, ishvasoz* so‘zlari b-n shaxslantiriladi:

Hayf erur har sho‘xi ra’no yuziga chun pok ishq,
Shavq o‘tin, kel, sen dog‘i-bu
ishvagarlardin sovut.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011.*

Z.R.

ISHTIQOQ (ar. – yorish, bo‘lish, chok etish; so‘zdan yangi so‘z hosil qilish) – bir o‘zakdan yasalgan turli ma’nodagi so‘zlarni muayyan doirada ishlatish b-n bog‘liq badiiy san’at. Nasrda ham, nazmda ham qo‘llanadi. Shakliy ko‘rinishiga tayanib, uni ko‘pincha lafziy san’atlar sirasiga kiritadilar. Ayrim olimlar uni tajnis san’atining bir turi, deb aytgan bo‘lsalar, boshqalar ham lafziy, ham ma’naviy san’atlar guruhiga kiritadi.

Y.Is’hoqovning yozishicha, “ishtiqoq oddiy so‘z o‘yini emas, balki u yoki bu so‘zning shakliy o‘zgarishi mazmun taqozosi bilan yuzaga keladi, yangi shaklning hosil bo‘lishi dastlabki ma’no bilan bog‘liq bo‘lgan yangi tushunchani ham paydo qiladi”. “Adabiyotshunoslik lug‘ati”da ham I.dan maqsad “o‘zakdosh so‘zlarni shunchaki keltirib she’rga bezak berish emas, bunda o‘zakdosh so‘zlar orasidagi ma’no aloqadorligi asosida mazmunni tiniq va teran, xushohang ifodalash kabi muhim estetik samaralar ko‘zlanadi”, – deb ta’kidlanadi.

M-n, quyidagi baytda N. nazm, nozim, Nizomiy kabi o‘zakdosh so‘zlarni qo‘llash orqali Nizomiyning nazm ahlining ustozi-yu “Xamsa”-ning asoschisi ekaniga urg‘u beradi:

Ahli nazm afsah ul-kalomi ul,
“Xamsa”ning nozimi Nizomiy ul.

Quyidagi baytda ganj, Ganja, ganjur singari bir o‘zakdan yasalgan so‘zlar vositasida Ganja shahrida besh ganj (besh xazina, ya’ni “Xamsa”) yaratgan Nizomiy haqiqiy ganjur (ganj, xazina sohibi) ekanini ta’kidlaydi:

Ganja ganjurikim, chekib ko‘p ranj,
Qo‘ymish erdi jahon aro besh ganj.

Tadqiqotchilarning ta’kidlashlaricha, morfologik usul b-n yaratilgan so‘zlargina I.ni hosil qiladi. I.ning muallif so‘zining umumiy jarangdoshligiga tayanadigan, o‘zakdoshlikni shart hisoblamaydigan yana bir nav’i mavjudligi ham aytiladi.

N.da bir o‘zakdan yasalgan ishtiqoqlar tez-tez ko‘zga tashlanadi.

Zarrot *aro har* ***zarraki*** *bor,* ***zikringa zokir;***
Amtor aro har qatraki bor, hamdinga go‘yo.

Yuqoridagi misolda zarrot, zarra, zikr va zokir so‘zlari vositasida ishtiqoq san’ati yasalgan. Shubhasiz, I. hosil qilish u-n jalb qilingan har bir so‘z o‘zi mansub bo‘lgan tilning ichki qonuniyatlari doirasida ishlatiladi. Shu jihatdan har uchala tilga mansub so‘zlarning ishtiqoq san’atini hosil qilish jarayonidagi xususiyatlari va imkoniyatlari ham bir-biridan tafovut qiladi. Jumladan, forsiy

va turkiy so‘zlarda o‘zakka turli qo‘shimchalar qo‘shish yo‘li b-n yangi ma’no yoxud ma’no qatlamlari hosil qilish imkoniyati bo‘lsa, arabcha so‘zlarda ichki fleksiya asosiy o‘rin tutadi.

Garchi bu san’atning ishlatilishi bayt doirasida (ruboiyda to‘rt misra ichida) amalga oshirilsa ham, ayrim shoirlar, xususan, N. ijodiyotida qator baytlar yoki barcha baytlarda I. muntazam ravishda ishlatilgan va natijada muayyan bir uslub hosil qilingan g‘azallarni ham uchratish mumkin:
Zihi visolinga tolib tutub o‘zin ***matlub,***
Muhabbatidin otingni Habib atab ***mahbub.***

Urujung oqshomi bo‘lmay to‘quz sipehr ***hijob,***
Yuzung xijolatidin mehr o‘lub vale ***mahjub,***

O‘t ichra tushsa, bo‘lur ***pisbati*** *samandardek,*
Kishiki, ishqing o‘tiga o‘zin qilib ***mansub.***

Iting ***hisobiga*** *kirgan* ***hisob*** *vaqtida,*
Agarchi jurmi erur ***behisob,*** *emas* ***mahsub.***

Kitobat *etmaganingdin qalamda nol emas,*
Ki tushti ko‘ngli aro tob, o‘ylakim, ***maktub.***

Umuman, I.da u yoki bu so‘zning shakliy o‘zgarishi mazmun taqozosi b-n yuzaga keladi, yangi shaklning hosil bo‘lishi dastlabki ma’no b-n bog‘liq bo‘lgan yangi tushunchani ham paydo qiladi. Shu sababli, I.ni ham ma’naviy, ham lafziy san’at xususiyati mavjud bo‘lgan mushtarak san’atlar doirasiga kiritish to‘g‘ri bo‘ladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға // “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2002. № 5; Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Л., 1972; Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т., 2006; Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2010; Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Т., 1979.*

E.O.

ISHFOQ – shafqat qilish, mehribonlik ko‘rsatish; doimiy bir achinish holida bo‘lish; nafsga qarshi kurashib, g‘olib kelgach, unga achinish. Xalqning holini anglab, unga qayg‘urish va mehribonlik ko‘rsatish.

Sulton Husayn Boyqaroni N. shunday hol sohibi qiyofasida tavsiflaydi:

Zuhd ichida topmadi Navoiy chu
maqome emdi qilur ohang
Kim, bo‘lg‘ay ulu bodavu bir turfa
mug‘anniy, mug‘ kulbasi ma’vo.
Har gavhari tufrog‘ uza bir qatra
su yanglig‘ tushkach adam o‘lg‘ay,
Gar qilmasa ishfoq etibon Xusravi G‘oziy
nazmi sari parvo.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011.*

Z.R.

ISHQ – sevgi va muhabbatning yuqori darajasi, majoziy muhabbatdan, haqiqiy I.qa kechish holati. I. so‘zini bir tasavvufiy istiloh sifatida birinchi bo‘lib, Abu Husayn Nuriy qo‘llagan. Alloh ishqidan dadil bahs yuritgan ilk so‘fiy shoira Robiya Adaviyadir. Ammo I. mavzusining tasavvuf va tasavvuf adabiyotidan keng o‘rin egallashi oson kechmagan. I.ni yoqlagan buyuk zotlar, hatto Junayd Bag‘dodiydek shaxslar kofirlik va zindiqlikda ayblangan.

Abu Abdulloh Hafif Sheroziy degan shayx esa “Allohga ishq kalimasini izofa etishni tarq qilish e’tiqod qilganimiz ishlardandir”, – deydi. Uningcha, I.dagi hatto eng kichik harakat ham bid’at va dalolat sanaladi.

Imom Qushayriy boshqa bir shayxning so‘zlariga e’tiborni qaratadi: “Ishq sevgida chegaradan o‘tmoqdir. Haq Subhonahu ishq b-n vasflanmaydi, chunki u haddan oshish, o‘zni unutish xususiyatiga ega emas... Xullas, Alloh Ishqdan beradir, na Haqning qul uchun, na qulning Haq uchun ishq sifatini nisbat berishga haqqi yo‘q”. Tasavvufning yirik arboblari, albatta, bunday

e'tiroz va qarshiliklarni qabul qilmasdan, ishqning mohiyati, qudrati, shaxs taqdiridagi ahamiyatini keng miqyosda isbotlashga erishganlar. Ibn Arabiy shunday deydi: "Bilki, sevgi (hubb) ilohiy bir maqomdir. Alloh o'zini u bilan vasf etdi. O'zini Vadud deya nomladi. Tavrotda Musoga sevgi ila shunday vahiy etdi: "Ey Odam o'g'li, senga bergan haqqim bilan Men seni sevaman. Shunday, senga yuklangan haqqing (omonat)ing ila sen Meni sev". Qur'oni Karimda hub, muhabbat, mavaddat so'zlari kelib, I. kalimasi uchramaydi. Bu kalimaning diniy isboti sifatida so'fiylar tayanadigan oyatlardan biri: "Imonli kishilarning Allohga bo'lgan muhabbatlari kuchliroqdir... (Baqara: 2/165)" ta'kididir. Ular oyatda keltirilgan "shiddatli sevgi" I.qa ishorat, deyishgan. Olamning yaratilishini I. b-n bog'lagan mutasavviflar "eng eski majlis"ni – I. majlisi, deya tafsirlar yozishsa, shoirlar mahbubini "Bazmi Azal"da ko'rgani va o'shanda oshiq bo'lganligini aytib, she'rlar bitishgan. M-n:

Zohid ayturkim, may ichma, vah,
aning hukmi bila
Sog' o'la olg'aymu masti bodayi jomi alast.

Ey Navoiy, ishq ila ko'nglum xayol
etti masof,
Ro'baro' bo'lg'ach mening qalbim
sari tushti shikast.

N. asarlarida Alast bazmidagi I. va oshiqlik bayoni keladi. Lirik qahramon o'zining oshiqligini Miysoq kunidagi ilohiy I. b-n bog'laydi. Hali vujudga kirmagan damlaridayoq ruh oshiqligi boshlanganiga ishora qiluvchi baytlaridan birida:

G'arqi muhiti ishqing edi jon ila ko'ngil,
Ul dam ruh emas edi tan birla oshno, –

degan N. aslida oshiqlikning eng yuksak darajasini tavsiflaydi. Zero, insoniyat qalbiga muhabbat urug'i "Qolu Balo"da ekilgandi.

Ma'lumki, tasavvufda I. ikkiga ajratiladi: majoziy va haqiqiy I. Majoziy I. bandaning bandaga yoxud biror yaratiqqa bo'lgan I.dir. Haqiqiy ishq esa bandaning Allohga, Allohning bandasiga bo'lgan muhabbatidir. Biroq so'fiylar majoziy ishq ila haqiqiy ishq o'rtasida bir bog'liqlik ko'rishgan. Go'yo majoziy ishq haqiqiy ishq tomon yo'lboshchilik qilgan. N. "Ishq agar komildurur, oshiq etar ma'shuqini" deya ta'riflasa, tasavvuf tadqiqotchilaridan biri: "Tasavvufning asosi – qullarga Allohni, Allohga qullarni sevdirmoqdir", – degan edi. Oshiqlik holiga erishgan solik:

Ishqdin chunkim murod o'lmak emish,
Bordur o'lmakka yaqin za'f ichra ish.
...Ishq aro jon tarki chun matlubdur,
Har ne oning boisi marg'ubdur, –

deya baqoga bog'lovchi fanoni istaydi. Bu kabi lirik kechinmalar "N."da yanada ochiqroq bayon qilinadi: "Kimki ishq bilan o'lsa, shunday o'lgani ma'qul. O'lim bilan tugamagan ishqda xayr yo'qdur". Fano xususida turli fikr-qarashlar tasavvuf qo'llanmalarida, irfoniy asarlarda mavjud, ammo N.ga ko'ra fano dargohida asl ilm I.dir:

Ishq ermish asli ilm fano dargohida
Ahli usul har neki der sar-basar furu'.

N. I.qa juda yuqori ta'rif beradi: "Ishq axtaredur duraxshanda, bashariyat ko'z nuri va safosi andin va gavharedur raxshanda, insoniyat tojining zeb va bahosi andin". Shoir I.ni ikki qismga ajratadi. Birinchisi, "avom ishqidurkim avom unnos orasida bu mashhur va shoye'durkim, derlar: "Falon falong'a oshiq bo'lubtur...".

Ikkinchi xil I. "xovos ishqidurkim, xovos ul ishqqa mansubdurlar. Ul pok ko'zni pok nazar bila pok yuzga solmoqdur va pok ko'ngul ul pok yuz oshubidin qo'zg'amoq va bu pok mazhar vositasi bila oshiqi pokboz mahbubi haqiqiy jamolidin bahra olmoq".

Mahbubi haqiqiy b-n oshiq orasidagi bunday poklik va pokbozlikka majoziy ishqda erishib bo'lmasa ham, N. oddiy odamlar sevgisini xoslar I.iga qarshi qo'ymaydi.

Ko‘rmasa husni majoziy ichra juz Haq sun’ini
Oshiqekim, bo‘lsa ishq atvori ichra pokboz.

Zohido, bu ishqdin man’ aylama oshiqnikim,
Gar sen idrok aylasang, ayni haqiqatdir majoz.

Tasavvufda solik bosib o‘tadigan marhalalardan ikkinchisi I.dir. I. yo‘lini bosib o‘tgachgina, ma’rifat bekatiga boriladi. N. ham bu vodiyning ta’rif-tavsifini, xususan, “L.T.” dostonida batafsil keltiradi. “Ishq vodiysining sifati” bobida shunday deydi:

Chun Talab vodiysini qilding tamom
Qo‘yg‘ung ul dam Ishq vodiysig‘a gom.

Ishq keldi mash’ali gitifuro‘z,
Dema mash’al, shu’layi ofoqso‘z.

Ishq aro pok-u qalandarliq kerak,
Shu’la bahrida samandarliq kerak...

I. Haq yo‘lchisini manzilga eltuvchi bosh tuyg‘u ekani shoir lirikasida ham ta’kidlanadi:

Ey Navoiy, ishq sahrosida xud qo‘ydung qadam,
To nechuk loshgoy sen ul poyoni yo‘q vodiy bil.

N. she’riyatida I.qa murojaat qilib yozilgan baytlar ham ko‘plab uchraydi:

Men o‘zga, Vomiq-u Farhod o‘zgadur, ey ishq,
Tana’um ahli aro e’tibor qilma meni..

N. devonlaridagi yuzlab she’rlar, shuningdek, dostonlarida ishqiy kechinma, oshiqlik holati va qismati mahorat b-n tasvirlangan. O‘zining lirikasi haqida shoirning e’tirofi ham uning ijodida I.ning qiymatini ko‘rsatadi:

To tuzdi Navoiy oyati ishq,
Ishq ahli aro navo bo‘lubtur.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ҳаққул И. Тасаввуф ва шеърият. – Т., 1991; Комилов Н. Тасаввуф. – Т., 2009.*

I.H., Z.R.

“ISHQ VA HAYRAT OLAMI” – I.Haqqul va E.Ochilovlarning N.ning mazmunan teran, badiiy yuksak, murakkab shakl-u uslubdagi g‘azallari, qit’alari, ruboiylari, fardlari va tushunilishi qiyin baytlari ilmiy-ommabop tahliliga bag‘ishlangan maqolalar to‘plami. Kitob ulug‘ shoir she’rlaridagi ma’no qirralarini kashf etish va beqiyos mahorati sirlari b-n o‘quvchilarni tanishtirish jihatidan muhim ma’naviy-ma’rifiy ahamiyatga ega.

N.ni xalqqa yaqinlashtirish, uning asarlarini oson tushuntirish yo‘llarini qidirish maqsadida shoir asarlarining nasriy bayonlari, sharhlarini amalga oshirish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirilgan. Ayni yo‘nalishdagi ishlarning mantiqiy davomi sifatida yuzaga kelgan ushbu to‘plam N. ning shoirlik salohiyatini o‘zida namoyon etgan shaklan go‘zal, mazmunan teran, ohorli va favqulodda timsol-u tashbehlar b-n ziynatlangan, badiiy san’atlarga boy, diniy va tasavvufiy istiloh-timsollar asosiga qurilgan, tushunilishi murakkab she’rlarini tanlab sharhlashga harakat qilingan.

Ad.: *Ҳаққул И., Очилов Э. Ишқ ва ҳайрат олами. – Т., 2016.*

M.A.

ISHQIY (to‘liq ismi: Mavlono Ishqiy Hirotiy) (XV asr Hirot) – shoir. N. “M.N.” tazkirasida ma’lumot berishicha, u mohir qasidanavis bo‘lgan. Sulton Abusaid mirzo Oqsaroyni yasaganda imoratning kitobasiga yozish u-n shoirlarga she’r buyuradi, I.ning imorat ta’rifida bitgan she’ri hammanikidan yaxshi chiqadi. Uning matla’si quyidagicha:

In manzara, ki toqi chu abro‘yi dilbar ast,
Az xok bargiriftayi doroyi kishvar ast.

Tarj.: Peshtoqi dilbarning qoshiday bu qasr mamlakat shohining tuproqdan bino qilgan imoratidir.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988.*

E.O.

ISHQ AHLI – oshiqlar jamoasi. N. ularni ma’rifatulloh sohiblari, valiy, orif zotlar ma’nosida keltiradi: “Ulug‘lar debdurlarki, o‘zungni alar orasida sig‘ur va o‘zungni alardin va alarning do‘stlaridin ko‘rguz. Agarchi bilgaysenki ne nav’ rasvosen o‘zni oshiq ko‘rguz. Agarchi bo‘lmasang to tongla so‘rsalarki, kim sen? Degaysenki, alarning (ya’ni oshiqlarning) do‘stlaridinmen va so‘zlarin eshitsang, agarchi ma’nosin bilmasang, bosh tebrat, to tongla degaysenki, alarning bosh tebratguchilaridinmen. Degaylar, kelki, senga haqqidur. Magar oning bila qutulg‘aysen.

Ishq ahli birla o‘ltur va oshiqliq et guzin,
Har kimki, oshiq ermas anga bo‘lmagin qarin.

I.A., ya’ni valiy zotlar b-n o‘tirgan bandalari haqida shunday hadis rivoyat qilinadi: “Ey malaklarim! Siz shohid bo‘ling, men bu qullarimni afv etdim. Yo Rab! Ularning ichida bir odam bor, bu majlisga u Seni zikr etish va yo ular bilan birga bo‘lish uchun emas, balki biriga ehtiyoji borligi sabab kelgan. (Sen uni ham afv etdingmi?) Ular shunday bir qavmdirki, ular bilan birga o‘tirgan kimsa ham hargiz yomon bo‘lmaydi. Marhamatim ila o‘shanday qullarimni ham afv etdim”. Shu sababli N. ham I.A. b-n birga o‘tirmoqqa da’vat qiladi va ular suhbatidan olinadigan fayz-u futuhdan bahs yuritadi.

N. “B.B.” debochasida ishq ahlining izhori so‘z bayonidagi sehr orqali insonning tojiga aylanganini aytadi: “Fasohat devonining g‘azal saroylari tab’ maxzanidin sho‘ridahol oshiqlar xirmani joniga o‘t solg‘udek bir otashin la’l nazm silkiga torta olmag‘aylar, agar so‘z debochasin ul soni’ javohiri hamdi bila murassa’ qilmag‘aylarkim, ishq ahlin olmosi lison sharafi va gavhari bayon lutfi bila soyir insonning durratul-toji qildi”.

“M.Q.”da shoirlarning tab’i nazmiga ko‘ra tasniflar ekan, *ishq ahli guruhining pokbozi va pokravi* deya Amir Xusrav Dehlaviyni ko‘rsatadi. Xuddi shunday N. o‘zini ishq ahliga shoh (“Shoh esam ishq ahlig‘a, tong yo‘qkim, ey gardun”) deb ataydi:

To tuzdi Navoiy oyati ishq,
Ishq ahli aro navo bo‘lubtur.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005. Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. – Душанбе, 1987; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Т., 1983.*

Z.R.

ISHQI KOMIL – ishq maqomida, oshiqlik rutbasida eng oliy darajaga, mukammallikka erishish. N.:

Ishq agar komildurur, oshiq qilur ma’shuqni,
Yo‘qsa, nevchun ayladi Mahmudqa qulluq Ayoz?

degan edi. Darhaqiqat, agar oshiq ko‘nglidagi ishq komillikka erishsa, bunday oshiqlar ma’shuqqa aylanadi. Tasavvufshunos Mahmud As’ad Jo‘shon ham “Tasavvufning asosi – qullarga Allohni, Allohga qullarni sevdirmoqdir”, – deya I.K.dan bahs etgan edi.

“L.T.” dostonida N. Shayx San’on ishqini komil ishq sifatida baholaydi:

Holig‘a hayrat qilib kuffor ham,
Rahm etib ul qotili xunxor ham.

Keldilar boshig‘a ahli kufr-u din,
O‘yla komil ishqig‘a deb ofarin.

I.K.ga ega bo‘lgan odam ishqning yetti shahrini ya’ni sulukning yetti bosqichini bosib o‘tgan bo‘lishi kerak. Sulukning yetti vodiysi xatarli bo‘lib, o‘zni ehtiyot qilmagan mahbub visoliga yetolmaydi. Aslida bu “yetti vodiy” istilohi o‘limdan keyin o‘tiladigan yettita qiyin dovondan olingan. Mutasavviflar fano va baqo maqomlarida sayr etgan kishida I.K. hosil bo‘ladi, deydilar.

N. “M.Q.” asarida “Ishq” ta’rifiga to‘xtalib, uch qismga: majoziy, haqiqiy va siddiqlar ishqiga bo‘ladi. Ulug‘ shoirimiz ta’riflariga e’tibor bersak, har bir qismga xos odamlarda o‘ziga yarasha I.K. bo‘ladi. I.K.ning eng cho‘qqisi siddiqlar ishqidir.

Ularning asosiy talablari: “Haqning jamolini ochiq ko‘rish istagi bilan kuyib yonadilar. Talablari shudir”. Ular “...Haqni ko‘z bilan mushohada qilish umidi tufayli o‘zni unutish darajasiga yetgan va bundan ham o‘tib, fano maqomini hosil etgandirlar”.

Ularning hollari: “...ma’shuq jamoli mushohadasi (ko‘rish) talabida va mashg‘ulotlar ham uning mulohazasi bilan va ko‘ngillari visol mayi nasibasidan behush va mast. Ketma-ket tajalliy nuridan a’zolari shikastlangan. Ruhlari visol bodasidan boshqa narsani xohlamaydi va Haq mushohadasidan boshqa narsa bilan ko‘ngillari orom olmaydi. Mana shular ishqda avvaldan murodiga yetgan va “Inda malikin muqtadir” (qudratli podshoh huzurida) maqomida orom topdilar va bu toifani vosillar (erishganlar, yetishganlar) debdurlar, ishqdan maqsadi hosil bo‘lganlar”.

N. g‘azallarida ham I.K.ning sifatlari ko‘rsatib berilgan. Shulardan biri: I.K. bo‘lganda, millat tanlamaydi:

Ishqi komil elni yo Farhod, yo Majnun qilur,
Gar erur ma’shuq yoxud armaniy, yoxud arab.

I.K.ning yana bir sifati: ma’shuq zuhd va bodadan halovat, lazzat topsa, oshiq ham lazzat topgandek bo‘ladi:

Ishqi komil ko‘rki, yuz ming zuhd birla bodadin,
Go‘yiyo men haz toparmen,
ul sumanbar topsa haz.

I.K.ning boshqa bir sifati: oshiq ma’shuqqa yetgan har qanday zaxm, aziyatning asarini o‘zida his qiladi:

Asar ko‘r ishqi komilg‘aki, zaxmi
menda zohirdur,
Ne qamchikim, tushubtur ul buti
paymonshikan uzra.

I.K.ning sifat va xususiyatlarini bilish, N. asarlarini to‘g‘ri tushunish va talqin qilish u-n yaqindan yordam beradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2006; Навоий асарлари луғати. – Т., 1972; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва таъбироти ирфони. Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.); Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005.*

S.R.

ICHKI QOFIYA – asosiy qofiyadan tashqari, she’rning ichki bayt va misralarida keladigan qofiya. M-n:

Chaman sarvi qolib hayron,
mening sarvim qilib javlon,
Aning shaydosi bir dehqon,
munga shaydo bari olam.

I.Q. goh misra, goh bayt doirasida bo‘ladi. Misradagi ichki qofiyalanish misra saj’i, baytdagisi bayt saj’i deb ham yuritiladi.

Baytni to‘rt qismga bo‘lib yuborishi jihatidan I.Q.lar chorbahra deb ham yuritiladi. Chunki ich-

ki qofiyalik baytlarni to‘rtlik shaklida ham ifodalash mumkin. Jumladan:

Navoiy kibi hijrondin,
bu oqshom o‘ldum afg‘ondin,
G‘amim yo‘q bo‘yla yuz jondin,
yetib gar kelsa jononim.

Navoiy kibi hijrondin,
Bu oqshom o‘ldum afg‘ondin,
G‘amim yo‘q bo‘yla yuz jondin,
Yetib gar kelsa jononim.

I.Q.da she’riy saj’ ishtirok etgani tufayli u san’atni musajja’ ham deydilar.

N. g‘azallarida I.Q.ning rang-barang ko‘rinishlariga duch kelamiz. Ba’zi g‘azallari boshdan-oyoq I.Q. asosiga qurilgan bo‘lsa, “Muvofiq kiydilar” g‘azalining matla’dan keyingi baytlari I.Q. usulida yozilgan. “Tun oqshom bo‘ldi-yu...”, – deb boshlanadigan g‘azalida esa uchinchi baytdan boshlab I.Q. qo‘llangan. She’rda boshdan-oyoq qo‘llangan I.Q. mukammal I.Q. deb, bir yoki bir necha baytida qo‘llansa, tarqoq I.Q. deb ataladi.

I.Q.lar she’rning ravonligi va ifodaliligini oshirish, unga alohida ohangdorlik va musiqiylik bag‘ishlash, har yarim misradagi fikrga urg‘u berish orqali she’rning jarangdorligi va ta’sirchanligini ta’minlashga xizmat qiladi.

“Vayronayedur maskanim...”, “Tandin o‘qungni cheksalar...”, “Masihodin labing afsah...”, “Chekkanda naqqoshi qazo...”, “Sevingil, ey ko‘ngul...”, “Bu bayramda qani sho‘xeki...”, “Vahki, chamandin yanasr..” kabi bir necha o‘nlab g‘azallari ichki qofiya asosida yaratilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Л., 1972; Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Т., 1983.*

E.O.

ISHQ RABOTI – N. tomonidan qurilgan rabot. Astrobod yo‘lida joylashgan. Shu nom b-n ataluvchi birinchi rabot X asrda Jurjon hokimi Qobus ibn Vushmagir tomonidan barpo etilgan. Bu shaxs Kaykovusning otasi bo‘lib, Kaykovus mashhur “Qobusnoma” asarining muallifidir.

Qobus tomonidan qurilgan rabot asrlar o‘tishi b-n vayron bo‘lib ketgan va Sulton Husayn Boyqaro hukmronligi davrida N. uning o‘rnida yangi rabot barpo qilgan va uni oldingi nomi b-n I.R. deb atagan. Bunda N.ning tarixiy nomlarga e’tibor b-n qaragani va ularning saqlanib qolishga intilgani ko‘zga tashlanadi.

Rabotning qurilishi, albatta, birinchi navbatda N.ga xos bunyodkorlikning, uning mamlakat obodonligiga, xususan, yo‘llarning ahvoli, yo‘lovchilar va musofirlarga qulaylik yaratish, umuman, xalqqa ko‘rsatgan g‘amxo‘rligi va e’tiborining bir ko‘rinishidir. Lekin shu b-n birga bunda masalaning boshqa tomoni ham bor, ya’ni N. davlat manfaati b-n bog‘liq jihatlarni ham ko‘zda tutgan. Yuqorida aytilganidek, rabot Astrobod yo‘lida bunyod etilgan. Astrobod esa Husayn Boyqaro davlatining iqtisodiy va siyosiy nuqtayi nazardan muhim hududi hisoblangan. Shu sababli ushbu viloyatni markaz b-n bog‘lovchi yo‘lga alohida e’tibor berish zarur edi. N. buni yaxshi tushungan va rabotning qurilishi shu omillar b-n ham bog‘liq bo‘lgan.

Ad.: *Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985.*

Q.E., B.R.

IQTIBOS (ar. − ilm o‘zlashtirmoq) − fikrni yorqin va go‘zal ifodalash, tasdiqlash, rivojlantirish, kuchaytirish u-n oyat va hadislar keltirishga asoslangan mushtarak (ham ma’naviy, ham lafziy) san’at. Fikrini oyat va hadislar b-n bezash, quvvatlash Sharq adabiyotida keng tarqalgan. Ilmi bade’ namoyandalari asarda I. qo‘llashning ikki uslubini ajratib ko‘rsatadilar: oyat va hadis aynan qo‘llansa, darj, tarjima qilib olinsa yoki ma’nosi keltirilsa hall deyiladi.

N. keltirgan oyat va hadislar asarlarining badiiy ziynati bo‘libgina qolmay, fikrlarini quvvatlovchi va tasdiqlovchi mustahkam asos hamdir. Bugina emas, uning fikr-g‘oyalari oyat va hadislarga aloqador va muvofiq ham bo‘ladi.

She’riy asarlarida u oyat va hadisni to‘liq emas, balki vazn taqozosi va qofiya talabiga ko‘ra ko‘pincha bir qismini keltirib, uning to‘liq mazmuniga ishora qiladi. Jumladan, “Azza man qana’, zalla man tama’” − “Qanoatli kishi aziz, tamagir esa xor-u zordir” hadisining bir fardida faqat birinchi qismini keltiradi:

Elni xor aylagan tama’, bilgil,
Doimo “azza man qana’” bilgil.

Diqqat qilinsa, bu yerda o‘zlashtirma gap tarzida hadisning ikkinchi qismi ma’nosi keltirilyapti. Demak, uni I. keltirish usulining har ikki turiga misol qili ko‘rsatish mumkin.

“M.Q.”dagi mana bu baytda esa ayni hadis mazmuni qayta ifodalanibgina qolmay, u o‘ziga xos izohlangan va rivojlantirilgan ham:

Oyini qanoat tut izzat tilar ersang kim,
Ermish tama’ ahlidin, har kimki zalil ermish.

Quyidagi baytda qiyomat kunida bilganini qilmagan, qilganini bilmagan olimning azobi har qanday johildan ko‘ra ko‘p bo‘lishi haqidagi hadisning mazmuni singdirilgan:

Qaysi johilg‘a nadomat bo‘lg‘ay ul olimchakim,
Har ne bildi − qilmadi, har neki qildi – bilmadi.

Nasriy asarlarida, “X.” dostonlari nasriy sarlavhalarida ham shoir oyat va hadislarni goh to‘liq, goh qisman keltiradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъу-с-санойиъ (А.Рустамов тарж.). – Т., 1981; Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т., 2006; Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2010; Давлатов О. Алишер Навоий шеъриятида Қуръон оятлари ва ҳадисларининг бадиий талқини: филол. фан. б. фалсафа док... дис. – Самарқанд, 2017.*

E.O.

J

JABBOROV Nurboy (1966-y., Qashqadaryo) – adabiyotshunos va matnshunos olim. F.f. d-ri (2004), prof. (2011). J.N. N. biografiyasi va adabiy merosini tadqiq etish b-n muntazam shug‘ullanib keladi. Olimning monografiya va maqolalari birlamchi manbalarga asoslangani, N. hayoti va ijodining kam o‘rganilgan muammolari tadqiqiga bag‘ishlangani hamda tahliliy quvvati b-n alohida ajralib turadi. Buyuk shoir hayotiga doir ishonchli manbalardan Xondamirning “Makorim ul-axloq” asariga oid tadqiqiy maqolalari mamlakatimiz va xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan. “Layli va Majnun” dostoni ilmiy-tanqidiy matni tadriji” tadqiqoti matnshunoslikning nazariy masalalari kesimida amalga oshirilgan. Mazkur ilmiy ishlar qo‘lyozma manbalarga tayanilgani, tahlil va xulosalarning yangi ekani bilan xarakterlanadi.

J.N.ning “Ma’rifat nadir” risolasida N.ning “L.T.” asarida ma’rifat talqini muammosi chuqur tahlil etilgan. “Navoiyning munosib izdoshi” maqolasida Furqat she’riyatida N. an’analarining poetik yangilanishi, “Zamon, mezon, she’riyat” kitobida N. nazmiy an’analarining Abdulla Oripov she’riyatidagi badiiy sintezi masalasi o‘rganilgan. N. she’riyatida *Vatan, xalq, ona, fatiy* obrazlari, N. va islom ma’rifati, shuningdek, *ishq, tinchlik, so‘z mas’uliyati, tilga e’tibor* mavzularining badiiy ifodasi, buyuk mutafakkirning *hayot, vaqt, nafas, adolat, futuvvat* konseptlariga oid falsafiy qarashlari tahlil etilgan ilmiy maqolalari o‘zigacha yaratilgan tadqiqotlardagi fikrlarni takrorlamasligi, zarur o‘rinlarda mutaxassislar b-n munozaraga kirishilgani, nazariy umumlashmalar salmog‘i jihatidan qimmatlidir.

J.N.ning “Maoniy ahlining sohibqironi” monografiyasida N. shaxsiyati va ijodining uyg‘unligi, asarlarida e’tiqodi va hayot tarzi aks etgani, davlat arbobi sifatidagi fazilatlari, bunyodkorlik faoliyati yangi talqinlar asosida yoritilgan. N.ning irfoniy va adabiy-estetik olami b-n bog‘liq o‘ziga xos ilmiy qarashlar ilgari surilgan. “X.”da ijodkor badiiy konsepsiyasi masalasi Nizomiy Ganjaviy “Panj ganj”i b-n qiyosiy aspektda tahlil etilgan. “A.” hamda “S.M.” asarlarining ilmiy-adabiy va axloqiy-ma’rifiy qimmati ochib berilgan. N. ijodiyoti an’analarining keyingi asrlar o‘zbek adabiyotiga ta’siri, millat badiiy-estetik tafakkuri yuksalishidagi o‘rni masalasi yoritilgan.

Ad.: *Жабборов Н. Маърифат надир? – Т., 2010; Жабборов Н. Маоний аҳлининг соҳибқирони. – Т., 2021; Сирожиддинов Ш. Халоскор – илм ва маориф. // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2011 йил 10 июнь; Юсупова Д. Буюк мутафаккир ижод оламига яқинлашув. // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2022 йил 1 январь; Asadov M.* “*Maoniy ahlining sohibqironi*” *kitobi haqida. https://kh-davron.uz.*

M.A.

JABRAIL (Jabroil) (a.s.) – islomda to‘rt muqarrab (bosh, yaqin) farishtalardan biri (Mikoil, Azroil, Isrofil bilan birga). J. (a.s.) Alloh amrlarini payg‘ambarlarga yetkazib, vahiy (xabar) keltiruvchi, samoviy ofatlarni yer yuzida ijro qiluvchi farishta (qarang: vahiy).

N. “T.A.H.” asarida J. (a.s.)ning payg‘ambarlarga keltirgan vahiylari, ularga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatgani va turli yordamlar qilgani haqida batafsil to‘xtalgan: “... va Jabroil (a.s.) hububot (urug‘lar, don-dunlar) kelturub, Odamg‘a qo‘sh surub, ekin ekmak qoidasin o‘rgatti”. “... va Ibrohim (a.s.)g‘a Jabroil bashorat berdikim, ming payg‘ambar Is’hoq naslidin mutavallid bo‘lg‘ay”. “...Lut (a.s.) tabayi bila shahrdin chiqdilar. Jabroil (a.s.) ul shahrlarni yerdin qo‘ng‘orib, osmong‘a eltib, sarnigun yerga urdi va ul eldin har kishikim, har qayda bor erdi sijjil toshi yog‘ib, borisin halok qildi. Hattoki, Lut (a.s.)ning jufti ul qavmdin erdi, ul toshdin halok bo‘ldi”.

J. (a.s.) Muhammad (s.a.v.)ga ham payg‘ambarlik bashoratini yetkazib, vahiy keltirib turgan. Harbiy yurishlarda yo‘l-yo‘riq ko‘rsatib, ilohiyotga doir munozaralarda yordamlashgan. Qur’oni Karimda J. (a.s.) “rasul” (elchi), “Ruh ul-amin” nomlari b-n zikr qilinib, Qur’onni hazrat Payg‘ambarimiz (s.a.v.)ga vahiy orqali yetkazib turganligi aytiladi:

Sanga nadim o‘lubon Jabrail kim keturub,
Bir oshno qoshidin barcha oshno alfoz.

J (a.s.) Payg‘ambarimiz (s.a.v.)ga me’roj kechasi ham Sidrat ul-muntaho degan joygacha hamroh bo‘lib borgan. N. bir qator baytlarida bu hodisani alohida ta’kidlaydi:

Rikobingda chovush o‘lub Jabrail,
Bu ma’nig‘a me’roj shomi dalil.

N. “L.T.” dostonida ham me’roj voqeasini qalamga olar ekan, Jabroil (a.s.)ning Muhammad (s.a.v.)ga me’roj tunida minish u-n tezuchar Buroq markabini keltirgani va samoviy safarga ma’lum joygacha hamroh bo‘lgani voqeasini tasvirlaydi:

Kim yetishti ollig‘a Ruh ul-amin,
Arz etib payg‘omi Rabbil olamin.

Ilkida erdi Buroqi barqxez,
Barq oning birla qila olmay sitez.

Dedikim, ey Tengriga joning qarib,
Jism ila ham bo‘l, erursen chun habib.

Rokib o‘lkim, kelturubturmen Buroq,
Gardi rohing ayla bu firuza toq.

Chiqti shah raxsh uzra chun mahkum edi,
Hukm qaydin erkoni ma’lum edi...

N. ijodida Payg‘ambarlar tarixi b-n bog‘liq voqealar tizimida Jabroil (a.s.) timsoli tez-tez uchraydi. Shu bois bu timsol xususiyati va ahamiyatini to‘g‘ri ilg‘ay olish kerak.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ислом энциклопедияси. – Т., 2017; Абдулқодир Абдураҳим ўғли. Ақоид дарслиги – Т., 2007.*

S.R.

JAVOBIYA – javob sifatida yozilgan maktub. Shaxsiy yozishmalarning an’anaviy uch turi – murofia, murosala va riqo’ birinchi bor yozilgani yoki boshqa shaxsga javob sifatida bitilganiga qarab ikkiga bo‘lingan va birinchi guruhi “xitobiya”, ikkinchisi “javobiya” deb yuritilgan.

J. yo‘sinida bitiladigan xatlar tuzilishi va mazmuniga ko‘ra xitobiyadan farq qilgan. Ular, odatda, ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismda muallif o‘zi olgan bitikning mazmunini eslatib o‘tgan, ikkinchi qismda uning javobi o‘z ifodasini topgan. Ko‘p hollarda J.ning birinchi qismidan adresat yuborgan maktubning ta’rifi ham o‘rin olgan, muallif uning go‘zalligi, mahorat b-n yozilgani haqida mubolag‘ali so‘zlar bitgan, uni o‘qib, qanchalik huzur qilganini ham aytib o‘tgan.

N. “M.”ida ham J. yo‘sinida bitilgan xatlar mavjud va ular inshoning murofia va murosala turlariga mansub. N.ning J. yo‘sinida bitilgan murofialariga xos xususiyat shundan iboratki, ularda adresat madhi yoki uning sha’niga bitil-

gan duo mazmunidagi so‘zlardan so‘ng adresatdan olingan maktub haqida so‘z yuritiladi. Ayrim hollarda uning mazmuni eslatib o‘tiladi, ko‘pincha o‘sha maktub haqida maqtov so‘zlari bitiladi. Bundan tashqari, N. murofialarining faqat J. u-n xos bo‘lgan ko‘rinishi ham bor. Unda xat duo yoki madh b-n emas, adresatdan olingan maktub ta’rifi b-n boshlanadi. Ta’rif she’riy shaklda ham nasrda ham ifodalanishi mumkin. N. J.larining biri adresatdan kelgan xatga bag‘ishlangan shunday ruboiy b-n boshlanadi:

Nomangki ko‘ngul komig‘a marg‘ub erdi,
Topti ko‘ngul andin ulcha matlub erdi,

Yo‘q nolaki, dilpazir-u mahbub erdi,
Xattida ko‘ngul murodi matlub erdi.

Yozishmalarda o‘ta muhim masalalar haqida so‘z ketgan hollarda J.da oldingi maktubda urg‘u berilgan bandlar eslatilgan va ularning har biriga aniq javoblar berilgan. M-n, J. yo‘sinida yozilgan murofialardan birida, maktubda tilga olingan ikki muhim masala qayd etiladi: “Biri ulkim, ne dastur bila alarni kishi yuborib so‘rdurali. Yana bir ulkim alar tobug‘ida maktub ne nav’ yetmak munosib bo‘lg‘ay. Buyruq yo‘suni bila arzg‘a yetkuruldi. So‘ngra ana shu ikki masala yuzasidan berilgan javob bayon etiladi”.

“M.”da murosalaning ham J. sifatida yozilgan namunalari bor. Adresat maktubiga ishora qilish, uni ta’riflash bu xatlarda ham uchraydi, lekin murosalaning J. turi xitobiyadan keskin ajralib turmaydi, uning J. ekanini xatdagi ayrim jumlalar, ishoralar bildirib turadi, xolos.

Ad.: *Алишер Навоий. Муншаот. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Эргашев Қ. Ўзбек насрида иншо, – Т., 2011; Адам Мец. Мусульманский Ренессанс. – М., 1973.*

Q.E.

JAYHUN (AMUDARYO, OMUDARYO, DARYOYI OMU) – Markaziy Osiyodagi eng sersuv, yirik daryo. J.ni yunon va rimliklar Oksus yoki Oksos, arablar Jayxun, yerli xalqlar dastlab O‘kuz, Balx, Vaxsh, so‘ngra Amul deb atashgan. J. quyi va o‘rta to‘rtlamchi davrda Qoraqum orqali o‘tib, Kaspiy dengiziga quyilgan, tog‘lardan suv oqimi b-n keltirilgan oqiziqlarning yotqizilishi natijasida qumlar tarkib topgan. J. tarixiy toponimi ko‘plab tarixiy, badiiy, ilmiy xarakterdagi yozma manbalarda tilga olingan.

N. “S.I.”, “T.M.A.”, “N.M.” kabi asarlari matnida J.ni tilga olgan hamda u haqida lirik lavha va xabarlar yozgan. “S.I.” dostonida berilgan shoh Iskandar va Movarounnahr b-n bog‘liq tavsifda J. nomi ikki o‘rinda tilga olingan, Sayhun-Jayhun shaklida qofiya ham tuzilgan:

Qilur erdi manzil-bamanzil murur,
Angachaki Jayhundin yetti ubur.

Yana kishvare ko‘rdi firdavsvash,
Havo-yu suyi misli firdavs xush.

Latofat aro ravzadin bahr anga,
Vale ism o‘lub Movaraunnahr anga.

Nedinkim, iki nahr arosi kelib,
Yaqin yuz yig‘ochqa fazosi kelib.

Oqib haddi sharqida Sayhun suyi,
Borib haddi g‘arbida Jayhun suyi.

J. to‘g‘risidagi yana bir ma’lumot N.ning “T.M.A.”da yozgan “Ikkinchi tabaqa kayoniylardur” nomli faslda uchraydi: “Va alar to‘quz kishi saltanat qildilar. ...Va kayoniylardin avval kishikim saltanat qildi Kayqubod erdi. Va ani Zob binni Tahmosb o‘g‘li Manuchehr naslidin debdurlar. Ko‘prak avqot Jayhun qirog‘inda bo‘lub, atrok bila urushub yurur erdi. Ul vaqt-qachakim peshdodiylar tugandilar...”. N. yana “N.M.” tazkirasining “Shayx Junayid Bag‘dodiy” nomli fiqrasida dushmanlar makri b-n tuhmatga uchrab, fojiali o‘lim topgan shayxning J. daryosiga oqizilgani xususida to‘xtalar ekan, J. nomini keltirgan. Chunonchi: “...Asli Bag‘-doddindur. ...Shayx Majduddin Xorazmda va’z aytur erdi va Xorazmshohning onasi va’zig‘a borur erdi. Va jamila zaifa erdi. Dushmanlar fursat asradilar va Xorazmshoh mast ekanda, anga ayttilarki, onang Imom Abu Hanifa mazhabi bila Shayx Majduddinning nikohig‘a kiribdur. Sulton bag‘oyat mutag‘ayyir bo‘ldi va buyurdikim, Shayx Majduddinni Jayhun suyig‘a soldilar...”.

J. haqida Abu Rayhon Beruniy maxsus “Amudaryo tarixi” nomli ilmiy asar yozgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

Q.E.

JALOLOV To‘xtasin (1909, Andijon – 1984, Toshkent) – yozuvchi, adabiyotshunos, tarjimon. N. tavalludining 500 yilligiga tayyorgarlik ko‘rish, shoir asarlarini talqin va targ‘ib qilishda faol ishtirok etadi. O‘zbek adabiyoti tarixidan majmua tuzadi, ayrim mumtoz shoirlar haqida tadqiqotlar yaratadi. Qatag‘onga uchrab, Sibir va Uzoq Sharqdagi qamoq lagerlari va surgunda bo‘lgan (1941–1955). 1955-y.da oqlangach, O‘zbekiston davlat badiiy adabiyot nashriyotida (1955–1961), O‘zR FA Til va adabiyot institutida (1961), “Sharq yulduzi” jurnalida (1962–1963) ishlagan.

Adabiyotshunoslik faoliyatini N. asarlarini tadqiq etishdan boshlab, o‘z vaqtida voqea bo‘lgan va hozirgacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan “Xamsa talqinlari” nomli salmoqli tadqiqotini yaratgan (1938–1941). O‘zbek shoiralari merosini izlab topish, tadqiq etish b-n shug‘ullanib, “O‘zbek shoiralari” (1959, 1970, 1980), “Bonu” (1963), “Qizlar qasidasi” (1976) kitoblarini nashr ettirgan. Pahlavon Mahmud ruboiylarini izlab topish, tarjima qilish va nashr etish, avliyo shoirning ilmiy biografiyasini yaratish borasida uzoq yillar izlanishlar olib borib, “Pahlavon Mahmud. Ruboiylar” to‘plamini forsiy asliyati bilan bir necha marta chop ettirgan (1956, 1962, 1979). Zamonaviy o‘zbek she’riyati bo‘yicha tadqiqotlari “Yashasin tabassum” (1965) va “Nafosat olamida” (1974) kitoblarida jamlangan. “O‘zbek adabiyoti tarixi” majmuasining 1-jildini tuzgan (1941).

Badiiy tarjima – J.T. faoliyatining asosiy sohalaridan biri bo‘lib, u “Hind ertaklari”, “To‘tinoma”, Pahlavon Mahmud ruboiylari, R.Tagor, S.Ayniy (“Esdaliklar”), Lohutiy, V.Smirnova-Rakatina (“Ibn Sino”) va boshqa adiblarning asarlarini mahorat b-n o‘zbek tiliga tarjima qilgan.

O‘zi ham badiiy ijod b-n shug‘ullanib, muhabbat mavzusida “Oltin qafas” qissasini yozgan. Unda moddiy jihatdan boy bo‘lishiga qaramay, ma’naviy jihatdan qashshoq kishilar hech qachon tom ma’noda baxtli bo‘lolmasligi haqidagi g‘oya ilgari surilgan.

Ad.: *Юнусов М. Истеъдод чашмаси // Сахий қаламлар. – Т., 1975.*

E.O.

JALOYIRLAR (jaloyirlar) – turkiy xalqlardan biri. Rashiduddinning yozishiga ko‘ra, J. XII asrda Onon va Kerulen daryolari bo‘yida yashashgan. Ular 10 bo‘lakka (qabilaga) bo‘lingan, har bir qabilaning o‘z sarkardasi (qabila

boshlig‘i) bo‘lgan. J.ning katta bir qismi kidonlar b-n bo‘lgan urushda yengilgach, Chingizxon ajdodlariga tobe bo‘lgan. Chingizxon hukmronligi davrida, J.dan bir qancha e’tiborli beklar va lashkarboshilar yetishib chiqqan. O‘rta Osiyo va Qozog‘istonda yashovchi J. keyinchalik o‘zbek, qozoq, qoraqalpoq va qirg‘iz millatlari tarkibiga kirgan. Abulg‘ozixon “Shajarayi turk” asarining “Mo‘g‘ul ellarining zikri” deb ataluvchi qismida 26 nomdagi urug‘ va qabilalarning eng so‘nggi o‘laroq J.ni sanaydi.

N. J. nomini o‘zining “V.”sida Husayn Boyqaro taxtga o‘tirishi munosabati b-n uning xizmatiga kirgan yuksak martabali amir va beklar qatorida tilga oladi: *“Chun zamonning azim ushshon sodot va fuzalosi va davronning karim ul-xulq quzot va ulamosi va temuriy najod shahzodalar va “barlosiy” nihod ozodalar va “arlotiy” ismlik sadrnishinlar va “tarxoniy” rasmlik ayshguzinlar va “qiyot” nasablik mutaayyinlar va “qo‘ng‘irot” hasablik mutamakkinlar va “uyg‘uriy” sifot baxshilar va “uyg‘ur”chargalik yaxshilar va “cho‘li”lik biyobonida jonsiporli qilg‘on jondorlar va boyrilik ayyomida xizmatkorlik qilg‘on jonsiporlar va “jaloyir” g‘avg‘osi va “qavchin” alolasi mavjud erdi va har mavjudqa bir maqsud va podshohona inoyat va har qaysig‘a bir munosib mansab bilan sarbaland va xusravona tarbiyat, har birisini muvofiq amal shug‘lig‘a payvand qildilar”*.

N. bergan ma’lumotga ko‘ra, XV asr Xuroson tarixiy-siyosiy muhiti haqida tasavvurlar boyiydi, shuningdek, bu dalil Husayn Boyqaro o‘z saltanatini boshqarishda qator urug‘larning vakillariga tayangani va har qaysiga muvofiq amallar berib, harbiy mahorat egasi bo‘lganini tasdiqlaydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Вақфия. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Жалойир. ЎзМЭ. 2-жилд. – Т., 2003; Абулғози Баҳодирхон. Шажарайи турк. – Т., 1992.*

S.O‘.

JAM (f.-t.) – qadimgi Eronning afsonaviy podshohi Jamshid nomining qisqartirilgan shakli. Sharq adabiyotida, shu jumladan, N. asarlarida uchraydigan obraz. She’riyatda va nasrda u shon-shavkat, kuch-qudrat, hukmdorlik timsoli sifatida qo‘llanadi.

Ma’lumki, Jamshid eng uzoq muddat hukmronlik qilgan. Jamshid “Jomi jahonnamo” – jahonni oyna kabi ko‘rsatuvchi jom yasattirgan bo‘lib, unda dunyodagi nafaqat ayni zamondagi, balki o‘tmishda yuz bergan va hatto kelajakda sodir bo‘ladigan voqea-hodisalar ham aks etar ekan.

Tasavvufda may qadahi va komil inson qalbi ham ilohiy sirlarni o‘zida saqlashi jihatidan oyinayi jahonnamoga tenglashtiriladi. U *“ma’rifatli insonning ichki dunyosi, ruhiy olami”*ga ham ishoradir. Shuningdek, ilohiy asrorlardan ogoh komil insonning qalbi ham Jamshid jomi – Jomi jahonnamo yoki jomi jahonbinga nisbat beriladi. Chunki bu qalb ilohiy ma’rifatga kon bo‘lib, unga boqqan orif Alloh mohiyati, g‘ayb sirlaridan ogoh bo‘ladi. Mumtoz adabiyotda *Jomi Jam, jomi jahonbin, jomi jahonnamo* kabilar olam hodisalari, shuningdek, inson aql-zakovati anglab yetmagan sir-sinoatlarni, olamshumul haqiqatlarni ham oshkor etadigan o‘ziga xos poetik timsollardir. N. she’riyatida ham bu timsollarga ko‘p murojaat etilgan. M-n:

Soqiyo, jomi jahonbin tutki, andin kashf etay,
Kim, ko‘p ish bu korgoh vaz’ida
mubhamdur manga?!

“T.M.A.” asarida N. Jamshidning *“saltanatqa o‘ltur”*ib, *“jahon mulkin adl va dod bila tuz”*-ganini, *“husn-u jamolda dilpazir, fazl-u kamolda benazir”* bo‘lganini yozadi. Jamshid hukmronligi davrida juda ko‘p ixtirolar qilinib, xalq baxt-u saodatda, to‘kin-sochinlikda, farovon hayot kechirgan. Shu sababli, shoir Ajam shohlari haqida fikr yuritarkan, soqiyga murojaat qilib, undan *“Jomi Jamshedsoz”* – Jamshid jomidek qadah keltirishini so‘raydi:

Ketur soqiy, ul jomi Jamshedsoz,
Ki, qilg‘ay jahondin meni beniyoz

“Jomi Jamshedsoz” insonni ruhiy yuksaklikka ko‘tarib, ma’naviy zavq-u shavq bag‘ishlaydigan, olam sirlaridan ogoh etadigan poetik timsoldir. Kuzatishlarimizga ko‘ra, N. asarlarida qo‘llanilgan har bir obraz, timsol va ramzlar o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmagan. Balki shoir muayyan tarixiy haqiqatlarga tayanib, asarning badiiy-falsafiy, estetik xususiyatlariga uyg‘un shaklda yaratgan. Shu ma’noda, aynan “S.” asarida uchraydigan Jomi Jam timsolining ma’nosi yanada teranlik kasb etgan. Shoir bevosita Husayn Boyqaro hukmronligining bardavom va mustahkam bo‘lishini istagan, shohga Jamshid yanglig‘ ulug‘vorlik, shon-shavkat yor bo‘lishini tilagan o‘rinlarda bu timsolga murojaat qilgan:

Avji xurshidi maqom o‘lsun anga,
Jomi Jamshid mudom o‘lsun anga.

“S.I.” dostonining 36-bobida Jamshid jomi haqida qiziqarli hikoya keltirilgan. Unda tasvirlanishicha, shoh Jamshid uzoq yillar davomida jahonning olim-u fuzalolarini to‘plab, ikkita jom yasattirgan:

Birisin dedi: jomi getinamoy,
Birisin dedi: jomi ishratfizoy.

N.ga ko‘ra, ular orasida jomi getinamo o‘z-gacha xususiyatga ega bo‘lgan ekan. Ya’ni undagi may ichgan b-n hech qachon tugamas ekan. Hatto jomni teskari qilishsa ham, undan bir tomchi may yerga to‘kilmas emish. Agar jomi getinamodagi may tugasa, butun olamda may va sharobdan bir tomchi ham qolmas ekan. Soqiyga murojaatida shoir o‘ziga ana shunday jom keltirishini so‘raydi. Shuningdek, mug‘anniyga xitob qilib, mana shu jomdagi may tugamaguncha, kuy va qo‘shiqni davom ettirishini aytib, bunday deydi:

Agar nag‘ma bas qilmoq etsang havas,
Hamul jom gum bo‘lmayin qilma bas.

Bu bilan shoir hayot go‘zalliklari-yu g‘aroyibotlarini ulug‘laydi. Kishilarni ulardan bahramand bo‘lishga, umrning har bir lahzasini zavq-u ishtiyoq b-n, xursandchilikda o‘tkazishga chorlaydi. Shoir o‘z-o‘ziga murojaat qilgan baytda agar shunday jom topilsa, maydan boshqa ichimlik ichmasligini aytadi. Bu o‘rinda may va jom timsollari ham shoirning hayotsevarlik tuyg‘ularini ifodalashga xizmat qilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005;*

M.A.

JAMOL KAMOL (1938, Buxoro – 2022, Toshkent) – shoir, tarjimon, adabiyotshunos. O‘zbekiston xalq shoiri (1992). F.f.n. (1971). J.K. shoir sifatida “Olam kirar yuragimga”, “Cho‘qqilarga yog‘ildi yog‘du”, “Tosh tug‘yon”, “Hasan va oy”, “Quyosh chashmasi”, “Qadah”, “Dostonlar”, “Suvaydo”, “Umidli dunyo”, “Площадь спасение”, “Varaxsha”, “Rajab Ashurov dostoni” she’riy kitoblari muallifi. 9 ta doston muallifi. Rus tilidan – A.S.Pushkinning “Mosart va Saleri” kichik fojiasi, R.Fishning “Jaloliddin Rumiy” tarixiy-biografik romani, fransuz klassisizmining yirik namoyandasi Bualoning “She’riy san’at” asari, latish shoiri Y.Raynisning “Oq tulpor” dramatik ertagi, nemis adibi B.Brextning “Sichuandan chiqqan mehribon” dramasi, Sh.Patefi (venger), L.Ukrainka (ukrain), M.Tank (belorus), N.Gribachev (rus), F. Xolvashi (gruzin) she’rlarini o‘zbekchalashtirdi. Ozarbayjonchadan B.Vahobzodaning “Faryod” to‘plami va “Shabi hijron” dostoni, X.Rizoning

“Samarqandim” she’rini, turk tilidan Hazrat Ali (r.a.)ning devonini, tojik tilidan S.Ulug‘zodaning “Firdavsiy” romani, G‘.Mirzoning “Davlat toji” lirik dostonidan “Oshiq dil rozi” nomli kattagina parchani o‘girdi. Ingliz tilidan – buyuk ingliz adibi V.Shekspirning jahon dramaturgiyasining gultojlari bo‘lmish “Qirol Lir”, “Hamlet”, “Makbet”, “Afinalik Timon”, “Romeo va Julyetta”, “Otello”, “Koriolan”, “Yuliy Sezar”, “Venesiya savdogari”, “Qish ertagi”, “Qirol Genrix VI”, “Antoniy va Kleopatra” kabi 12 ta dramasi va sonetlarini, shuningdek, B.Aladinning Budda, Muso (a.s.), Iso (a.s.) va Muhammad (s.a.v.)ga bag‘ishlangan qissalarini, “Akbar va Birbal” hikoyatlarini mahorat b-n tarjima qildi. Fors tilidan – Abu Ali ibn Sino, Umar Xayyom, Abdulloh Ansoriy, Hakim Sanoiy, Adib Sobir Termiziy, Mavlono Jaloliddin Rumiy, Shayx Najmiddin Kubro, Amir Xusrav Dehlaviy, Mirzo Abdulqodir Bedil ruboiylari, Mavlono Jaloliddin Rumiyning olti kitobdan iborat muazzam “Masnaviyi ma’naviy”si, Shayx Fariduddin Attorning “Mantiq ut-tayr”, “Ilohiynoma”, “Asrornoma”, “Ushturnoma”, “Bulbulnoma”, “Pandnoma”, Hakim Sanoiyning “Sayr ul-ibod”, Mahmud Shabustariyning “Gulshani roz” dostonlari, Mirzo Bedilning “Irfon” masnaviysi, Nizomiy Ganjaviy “Xamsa”si, Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Foniy g‘azallarini o‘zining aruziy vazni b-n o‘zbek tilida yangrata oldi. Bu tarjimalari u-n Turkiya jumhuriyati Madaniyat vazirligining Jaloliddin Rumiy oltin medali (1996) hamda Eron Islom Respublikasi davlat mukofoti (2002) b-n taqdirlangan.

J.K. N. adabiy merosining ilhombaxsh ta’sirida ulg‘aygan, uning shoir o‘laroq shakllanishi va she’riyatda o‘z yo‘lini topishida bu ulug‘ salafining ma’naviy madadi beqiyos. Bo‘lajak shoir hali o‘quvchilik yillaridayoq N. g‘azal va ruboiylarini sevib o‘qigan va yod olib aytib yurgan. N. dan ruhlanib she’rlar yoza boshlagan. Zamonaviy g‘azalchilik taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan va bu ko‘hna janrga yangi hayot bag‘ishlagan shoirlardan bo‘lmish J.K. bu yo‘lda N. ijodini o‘ziga mayoq deb bildi. U g‘azal bo‘stoniga qadam qo‘yganidayoq g‘azal mulkining sultoni ruhidan madad so‘raydi va ko‘zimning nuri b-n ra’no guliday g‘azal yaratish u-n Mir Alisherning xoki poyini ko‘zimga surtaman, deb yozgan edi:

Mir Alisher xoki poyin
Ko‘zga surtarman, Jamol,
To yozay deb ko‘z nurim birlan
Guli ra’no g‘azal...

J.K.ning ijodiy taqdirida N. har tomonlama keng va chuqur rol o‘ynagan bo‘lib, bu ta’sir qirralari va ilhom samaralarini bir necha yo‘nalishga bo‘lib tadqiq qilish mumkin: J.K.ning N. g‘azallariga tatabbu’lari; J.K.ning N. g‘azallariga muxammaslari; J.K.ning N. yo‘lida bitgan g‘azal va baytlari; J.K.ning N. ta’rifida yozgan she’rlari va satrlari; J.K.ning ulug‘ shoir hayoti va faoliyati b-n bog‘liq hikoyatlari; J.K.ning ulug‘ shoirning sevgisi haqida folklor motivlari asosida bitgan “Navoiy muhabbati” dostoni; J.K.ning N. haqidagi tadqiqotlari, maqolalari va fikrlari; N. forsiy qasida va g‘azallarining J.K. tomonidan amalga oshirilgan tarjimalari va h.k..

J.K. jumladan, N.ning “Umid”, “Qadah”, “O‘t”, “Bor edi”, “Etmas” radifli qator g‘azallariga vazn va radif saqlangan holda mavzu, mutlaqo yangi mazmun va qofiyadagi tatabbu’lar qilgan. Jumladan, uning

Ey na xush damlarki ul,
Yonimda yorim bor edi,
Tal’ati birlan munavvar
Ro‘zgorim bor edi, –

misralari b-n boshlanadigan 8 baytli g‘azali N. ning:

Bor edi ul hamki, bir chog‘ bizga yore bor edi,
Kulliy ar yor o‘lmasa, filjumla bore yor edi, –

matla’li 7 baytli g‘azaliga tatabbu’dir. Lekin bu shakliy o‘xshashlik mazmunning yangi o‘zanda

davom etishiga xalal bermagan. Mazmun jihatidan esa ayni g‘azalga shoirning mashhur:

Aylamang bekasligimni ta’n, bir kun bor edi
Menda ham bir nozanin chobuksuvor, ey do‘stlar, –

baytli g‘azali ta’sir ko‘rsatgani shubhasiz. Bu g‘azal hayotiy asosga ega bo‘lib, uni J.K. bir umrlik hayot hamrohi Vohidaxonimdan judo bo‘lgan ayriliq kunlarida bitgan. “Umid” g‘azalida esa N.ning o‘zini ham ta’rif etadi:

Shamsi anvardir tilim, deb
Elga keltirdi imon –
Ul Navoiykim, basharga
Nuri iymondir umid.

J.K. taxmislari o‘zaro ijodiy musobaqa va hamkorlikning, salaflar “panjasiga panja urish”-ning go‘zal namunalaridir. Chunki u zabardast so‘z san’atkorining o‘zini to‘lqinlantirgan, qalbida aks-sado bergan g‘azallariga muxammas bog‘laydi va ulardagi fikrlarni rivojlantiradi va to‘ldiradi, tuyg‘u-kechinmalarni teranlashtiradi va rang-baranglashtiradi, timsol-u tashbehlar shodasini boyitadi va yangi qirralarini ochadi. Jumladan, N.ning “Ko‘nglim ma’shuqa zulfining asiriga aylangan, binobarin, ishqim sharhini men telbadan emas, o‘sha mubtalodan so‘rang”, – deya nozik lutf asosiga qurilgan baytini “Ey yor, men qanday qilib ishqimni izohlab bera olaman, yaxshisi, she’rim uni olamga sharhlab bersin, qolaversa, bulbul bog‘ ichra chahchahlab, ishqim dostonini kuyga solayati-ku”, – tarzidagi g‘azalda ifodalangan mazmunni ochib beradigan misralar b-n to‘ldiradi – natijada ishq sharhining keng tafsilotini o‘z ichiga olgan muxammas bandi vujudga keladi:

Men bugun so‘ylay nechuk, ey yor, ishqim sharhini,
So‘ylasin olamga shu ash’or ishqim sharhini,
Bog‘ aro bulbul etar takror ishqim sharhini,
Ko‘nglim ul zulf ichradir, zinhor ishqim sharhini,
Istamang men telbadin, ul mubtalodin istangiz.

U N.ning “Xil’atin to aylamish jonon qizil, sorig‘, yashil”, “Vafo ahliga davrondin yetar jabr-u jafo asru”, “Istaganlar bizni sahroyi balodin istangiz” misralari b-n boshlanadigan g‘azallariga ham betakror taxmislar bog‘lagan.

J.K. ko‘plab she’rlarida ham turli munosabatlar b-n ulug‘ N.ni tilga oladi: goh uni ta’riflasa, goh biror fikriga shafe’ keltiradi; goh uning biror bayt-u misrasini tazmin qilib olsa, goh biror timsol-u tashbehini davom ettirib, uning yangi bir qirrasini ochadi; goh esa ulug‘ shoir tasvir yoki qiyos asosi bo‘ladi. “Alisher Navoiy g‘azallari – go‘zallik mulkining mangu so‘lmas chechaklaridir. Ularda ishq bor – alam bor, dard bor – farah bor. Beorom, otashin qalbning buyuk talpinishlari, yuksak, olijanob ruhning betakror suvratlari, manzaralari...”, – deya ta’rif etib, “Navoiy muhabbati” dostonida uning sha’nida mana bunday baytlar tizadi:

Navoiydek jahonda bormi shoir?
U yanglig‘ lochin-u shunqormi shoir?

Navoiy desa, ta’zim ayla zinhor,
Bu nomda bezavol umri abad bor…

Ma’rifat mash’ali bo‘ldi Navoiy,
Basharning afzali bo‘ldi Navoiy.

“Anvarmirzo hikoyatlari” turkumida ham N. b-n bog‘liq uchta hikoyat keladi. Chunonchi, N. va Guli muhabbati xalq ichida keng tarqalgan bir rivoyat, Guli folklorda vujudga kelgan to‘qima bir obraz bo‘lganidek, N. va Xadicha sevgisi ham bir taxmin. Chunki ilm ahli orasida Husayn Boyqaroning sevimli xotini Xadichabegimga shoirning yoshlikda ko‘ngli bo‘lgan, degan bahs-u munozaralar yuradi. N.ning Mahdiul’yoga bag‘ishlangan bir necha g‘azallari bunga asos bo‘lgan esa ajab emas. “Navoiy muhabbati” dostoniga ayni qarashlarning badiiy talqini deb qarash kerak.

Shoir Eron sayohatiga borganida safar taassurotlari asosida yozgan turkumini ham “Na-

voiydan qadamjo deb...” ataydi va buyuk so‘z san’atkori tahsil olgan bu yurtdan uning izlarini izlaydi, nafasini tuymoqchi bo‘ladi.

Kezib Mashhadni, maktab, madrasa,
balki ilmgoh deb,
Necha ma’voga bosh urdim,
Navoiydan qadamjo deb...

J.K. N. haqida alohida tadqiqot yaratmagan bo‘lsa ham, “Lirik she’riyat” nomli yirik monografiyasida N. ijodiga ham juda ko‘p murojaat qiladi: lirika tabiati, his va kechinma ifodasi, lirikada xarakter, tabiat va zamon, lirik va liro-epik asarlar, lirikada kompozitsiya kabi muhim ilmiy masalalar tadqiqida ulug‘ shoir ijodidan qator misollar keltiradi. She’riy san’atlarning-ku deyarli barchasi N.ning badiiy barkamol baytlarini keltirish b-n asoslanadi. Jumladan, adabiyotning hayot va zamon b-n chambarchas bog‘liqligi haqida fikr yuritar ekan, “klassik lirikamizning Navoiy nomi b-n shuhrat topgan oltin asri o‘sha davr milliy, ijtimoiy hayotining taraqqiyot tendensiyalari b-n uzviy bog‘liqdir”, – deb yozadi. Lirik kechinma tabiatini tahlil qilganida ham N. dan misol keltiradi: “birovlar talqinida lirika ijtimoiy-estetik taraqqiyotni olg‘a suruvchi muhim faktor, kurash quroli bo‘lib gavdalansa, birovlar talqinida mavhum sezgilar olami, tumanli xayollar dunyosi tusini oladi N.ning:

Nazmki, ham suvrat erur xush anga,
Zimnida ma’ni dag‘i dilkash anga, –

misralarida biz birinchi talqinning yorqin namunasini ko‘ramiz. Shoirimiz aytmoqchi “nazm zimni” (ichi, mag‘izi)dagi “dilkash ma’ni” tahlil etayotganimiz lirik kechinmaning tarkibini tashkil etadi. Bu tarkib ikki element – fikr va hisdan iborat bo‘lib, yaxlit holda ehtirosli fikr yoki fikriy ehtiros, deb ataladi. Negaki, “nazm zimni”dagi “ma’ni (fikr)” “dilkash” bo‘lishligi uchun u ehtirosga o‘rab berilishi kerak”.

Adabiy janrlar tadqiqida ham N.ning g‘azal, qasida, muxammas, musaddas, mustazod, musamman, ruboiy, qit’a kabi janrlar taraqqiyotidagi xizmatlarini ko‘rsatib o‘tadi. Lirikada kompozitsiya masalasini tekshirar ekan, N.ning g‘azal qurilmasini shakllantirishdagi mahoratini ibrat o‘laroq keltiradi: “Alisher Navoiy bir g‘azal doirasida bir necha masalaga qo‘l urmasdan, yagona bir fikr, yolg‘iz bir motivni pog‘onama-pog‘ona rivojlantirishni, shu asosda g‘oyaviy yaxlitlikka (demak, kompozitsion butunlikka ham) erishishni targ‘ib qilgan edi”. Tadqiqotda, shuningdek, Uyg‘un va Izzat Sultonlarning “Alisher Navoiy” dramasini teran tahlil qilib, asarga yuksak baho beradi. Bundan tashqari J.K. N.ning mashhur, lekin murakkab uslubdagi “Qizil, sorig‘, yashil” radifli g‘azalini sharhlab maqola yozgan. Mazkur maqolada, jumladan, mana bunday teran ilmiy fikrlarni bildiradi: “Navoiyning har bitta bayti zamirida bir, uch, besh yoki o‘nlab ma’no va mazmunlar yashirin, inchunin ularning izohi u-n bir, uch, besh yoki o‘nlab talqinlar tug‘ilishi muqarrar. Ularning qirralari, chizgilari, tovlanishlari, ramz-u ishoralari behisob. Bir yo‘la qamrab olib bo‘lmaydi. Dunyoni bir qarashda qamrab yoki bitta talqinga sig‘dirib bo‘lmaganidek... Lekin Navoiy dunyoqarashining bosh ustuni bor. U shoir dunyosini, uning osmondek azamat gumbazini boshida tikka ko‘tarib turadi. Bu – tasavvuf ta’limoti, naqshbandiylik tariqati. Shoir falsafasi ana shu ta’limot, ana shu tariqatga suyanadi. Bu ta'limot va tariqatning qisqacha mazmuni shunday: *olamdan maqsad – odam, odamdan maqsad – Xudo, Xudodan maqsad – kamolot, kamolotning yo‘li esa cheksiz, bu yo‘lga chiqqanlar “haqiqat yo‘lchilari” atalib, ishq-muhabbat ularga rahnamo bo‘lgay...* N. olam va odamni ana shu nuqtayi nazardan kuzatadi va idrok etadi, boshqacha aytganda, u olam markazida odamni, odam siymosida olamni ko‘radi, olam va odam birligida esa “husni mutlaq”, “mehri mutlaq” quyoshining rang-barang shu’lalarini ko‘rib, hayrat va hayajonga tushadi. Uning g‘azallari haq-haqiqatning ana shu cheksiz shu’lalari qarshisidagi cheksiz hayrat va hayajonlarning so‘ngsiz nidolari, sadolaridir”.

Yana “Navoiy va biz...” nomli maqola yozib, shoir va zamon b-n bog‘liq fikr-u qarashlarini bayon etadi. “Millatning qo‘rg‘oni..” maqolasida esa N.ning davlat arbobi sifatidagi siyosiy-ijtimoiy faoliyatiga baho beradi. Ko‘plab maqola va chiqishlarida N.ning she’rlari va hikmatli so‘zlaridan misollar keltirib, tahlil qilib beradi, o‘zining fikrini tasdiqlaydi. Bu shoirning ulug‘ salafi asarlarini bir umr mutolaa qilib kelgani va ijodini yaxshi bilishidan dalolat beradi. Bu chiqishlari orasida ulug‘ shoirning ko‘plab durdona bayt-u misralari va hikmatli so‘zlari b-n tanishamiz. “Quyoshdek ravshan haqiqat”, “Millatning sharafi”, “Bir piyola og‘u”, “Ruhiyat yulduzi”, “Ma’naviyatimizning Izzat Sultoni” kabi qator maqollarida ham o‘z fikr-u mulohazalarining tasdig‘i u-n buyuk mutafakkirning durdona fikrlariga murojaat qiladi, purma’no she’rlaridan iqtiboslar keltiradi.

U N.ning forsiy merosidan 200 g‘azal va 10 qasidani an’anaviy vaznida – aruziy jilosi b-n tarjima qilib, “Foniy gulshani” nomi b-n alohida kitob holida nashr ettirdi. Uning Sharq mumtoz so‘z adabiyotini yaxshi bilishi, forsiy adabiyot tarjimasida katta tajriba to‘plab, yuksak mahorat hosil qilgani, eng muhimi, tiynatida sharqona ruh mavjudligi, o‘zi ham aruzda hassos g‘azallar, purma’no ruboiylar va oshiqona muxammaslar yozib, qalami qayralgani Foniy g‘azallari va qasidalari tarjimasi muvaffaqiyatini ta’minlangan omillar sirasiga kiradi. M-n:

Olame xoham, ki nabvad mardumi olam dar o‘,
K-az jafoyi mardumi olam naboshad g‘am dar o‘, –

bayti b-n boshlanadigan ramali musammani maqsur vaznidagi muxtara’ Foniyning eng go‘zal va mashhur g‘azallaridan bo‘lib, uni J.K. o‘z vazni b-n maromida tarjima qilgan va shakl hamda mazmun birligining yorqin namunasini yaratgan:

Olam istarmanki, unda ahli olam bo‘lmasin,
Unda olam ahlining bedodidin g‘am bo‘lmasin.

Ad.: *Камол Ж. Сайланма. 7 жилдлик. – Т., 2018–2022; Мир Алишер Навоий. Фоний гулшани. – Т., 2011; “Девони Фоний”нинг ўзбекча таржималари // ЎТА, 2011, №1.; Очилов Э. Жамол Камол ижодида Алишер Навоийнинг ўрни // “Алишер Навоий адабий ва илмий меросини ўрганиш масалалари” мавзуидаги халқаро конференция материаллари. – Т., 2022.*

E.O., M.H.

JAMSHID – afsonaviy shaxs. Sharq tarixnavisligi an’anasida u peshdodiylar sulolasiga mansub Ajam shohlaridan hisoblanadi. Tadqiqotchilarning yozishlaricha, J. “Avesto”da “Inma” nomi b-n tilga olingan. Mifologiyada J. – adolatli hukmdor, ijobiy qahramon. Afsonalarda J. hukmronligi davrida insonlar baxtli yashagani, mamlakat obod bo‘lgani hikoya qilinadi.

N. Sharq tarixnavisligi an’analaridan kelib chiqib, “T.M.A.” asarida J.ni peshdodiylar sulolasidan bo‘lgan podshoh sifatida zikr etadi. Uning yozishicha, ayrim Sharq tarixchilari J.ni Tahmurasning qardoshi, boshqalari esa qardoshining o‘g‘li, deb ko‘rsatganlar. Boshqa Sharq adiblari singari N. ham insoniyatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida erishgan ko‘pgina yutuqlarini Jamshid nomi b-n bog‘laydi, jumladan, yog‘och va tosh qurollar o‘rniga temirdan ishlangan qurollarning paydo bo‘lishini, ipak matolar, bo‘yoqlarni uning ixtirosi deb hisoblaydi. “T.M.A.”da J.ning Istaxr shahrini kengaytirgani va u yerda Chihilminar deb ataluvchi ulkan bir bino qurgani, shuningdek, Navro‘z kunini ham Jamshid belgilagani hikoya qilinadi. Lekin keyinchalik u manmanlik va takabburlikka berilgan, hatto shu darajaga yetganki, kishilarni o‘ziga sig‘inishga buyurgan. Shu sababli Alloh g‘azabiga uchrab, Zahhok tomonidan o‘ldirilgan.

M.A.

JAM-U TAQSIM (ar. – jamlash va taqsimlash) − narsa-tushunchalarni avval jamlab, keyin taqsimlashga asoslangan ma’naviy san’at. Lug‘atda taqsimli jam’ tarzida ko‘ri-

nadi. Istiloh sifatida bir necha narsani bitta sifat yoki xususiyat nuqtayi nazaridan jamlash va keyin boshqatdan ularni turlarga ajratishga aytiladi. Agar taqsimlash jarayonida ularning o‘ziga xos xususiyatlari farqli jihatlarini ham ko‘rsatsa, jam-u taqsim-u tafriq san’ati hosil bo‘ladi. M-n:

G‘azalda uch kishi tavridur ul nav’,
Kim andin yaxili yo‘q nazm ehtimoli:

Biri mo‘jiz bayonliq sohiri Hind,
Ki ishq ahlini o‘rtar so‘z-u holi.

Biri Iso nafaslik rindi Sheroz;
Fano dayrida mast-u louboliy.

Biri quds asarlik orifi Jom,
Ki, jomi jamdurur sing‘an safoli.

Navoiy nazmiga boqsang, emastur,
Buuchning holidin har bayti xoli.

Hamono ko‘zgudurkim, aks solmish
Anga uch sho‘xi mahvashning jamoli.

N. avvalo, uchta zot (Xusrav Dehlaviy, Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy)ni bitta masalada, ya’ni g‘azal janrining tarixi nuqtayi nazaridan jamlaydi, ularni besh asrlik forsiy she’riyatning eng muhim jihatlarini o‘z ijodiyotlarida mujassam etgan daholar sifatida baholaydi. Keyingi baytlarda esa, ularning har biri u-n xos bo‘lgan jihatlarni, farqli tomonlarni alohida-alohida tavsif etadi (ya’ni: Xusravning sehrli qalamiga xos “mo‘jiz bayonlik”, sherozlik rindga mansub Iso nafaslik, va nihoyat, “quds asrlik orifi Jom” ijodiyotida namoyon bo‘lgan teran falsafiylik).

Mashhur nazariyotchi Rashididdin Vatvot bu san’at haqida to‘xtalar ekan, *“jam’ning tafriq-u taqsim bila kelmagi ko‘p mushkuldur”,* deb ta’kidlab o‘tgan. Bunda, Atoulloh Husayniyning yozishicha, dastlab “bir nechani bir hukmda jam’ qilurlar, andin so‘ng ul bir nechani taqsim qilurlar, ya’ni ul bir nechaning har birig‘a muayyan bir nimani nisbat berurlar. Yoki bir nechani avval taqsim qilurlar, andin so‘ng bir hukmda jam’ etarlar”. M-n, N. “Hukamo qavlining tarjimasi” qit’asida yozadi:

Uch kishidin uch ish yomon ko‘runur,
Sanga arz aylay ahli dunyodin:

Shohdin tundlug‘, g‘anidin buxl,
Molg‘a mayl-u hirs donodin.

Bu yerda shoir dunyo ahlidagi uch toifa kishidan uch xil ishning sodir bo‘lishi yaxshi emas, deb avval fikrini umumlashtirib bayon qiladi-da, keyin o‘sha uch ishni ajratib, ko‘rsatadi: shohdan g‘azab, boydan baxillik, donodan boylikka hirs-u havas.

“Hukamo qavlining tarjimasi insoniyat bobida” qit’asida esa dastlab tavoze, kechirimlilik va saxovat kabi insoniy fazilatlarni alohida-alohida ta’riflaydi-da, so‘ng tabiatida ushbu xislatlar bo‘lgan kishini donishmandlar komil inson deb ataganlarini yozadi:

Tavozu’ yaxshi, ammo yaxshiroqdur
Agar da’b etsa oni ahli davlat.

Erur ham afv xo‘b-u xo‘broq ul −
Ki, zohir bo‘lg‘ay el topganda qudrat.

Ato ham turfa ishdur, turfaroq bil
Agar yo‘qtur aning yonida minnat.

Hakim insoni komil debtur oni −
Ki, bo‘lg‘ay zotida bu necha xislat.

N. ijodida J.T. san’atining har ikki ko‘rinishi mahorat b-n qo‘llangan.

Ad.: *Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға // “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2002, №6; Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъус-санойиъ (А.Рустамов тарж.). – Т., 1981;*

Зеҳний Т. Санъати сухан. – Душанбе, 1967; Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т., 2014;

E.O.

JAM-U TAFRIQ (ar. − yig‘ish va ajratish, farqlash) − narsa-tushunchalarni bir sifat atrofida jamlash va ayni paytda ularni farqlashga asoslangan ma’naviy san’at. Rashididdin Vatvot ta’rifiga ko‘ra, “bu san’at andoq bo‘lurkim, shoir ikki nimani bir nimaga o‘xshatib jam’ qilur, dag‘i ikki o‘zgacha nima bila alarni bir-biridin ayirur”. – M-n, N. quyidagi baytida mahbubaning og‘zi va ko‘nglini g‘uncha deb jamlash barobarida ularning g‘unchadan farqini ko‘rsatib beradi: yorning yo‘q darajadagi og‘zi g‘unchadan kichik, beparvo va beg‘am ko‘ngli esa g‘unchadan nihoyatda katta:

Ikki g‘unchang emas, ey gulchehra, teng,
Og‘zing asru tor-u ko‘ngling asru keng.

Ad.: *Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъу-с-санойиъ (А.Рустамов тарж.). – Т., 1981; Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға // “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2002, № 6; Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Т., 2001; Зеҳний Т. Санъати сухан. – Душанбе, 1967; Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т., 2014.*

Y.I.

JANNAT – bog‘. Diniy atama sifatida Alloh taoloning buyruqlarini bajarib, uning marhamatiga sazovor bo‘lgan bandalar u-n ko‘z ko‘rmagan, quloq eshitmagan noz-ne’matlar tayyorlab qo‘yilgan joy. J.da eng ulug‘ ne’mat Alloh taoloning jamolini (diydorini) ko‘rish hisoblanadi. J.ga kirganlar unda abadiy qoladilar. J. sakkizta bo‘lib, ularning darvozalari ham sakkiztadir. Ular quyidagi nomlar b-n ataladi:

1. Firdavs (bog‘-bo‘ston); 2. Adn (vatan tutmoq); 3. Na’iym (huzur-halovat); 4. Xuld (mangulik); 5. Ma’vo (tekis joy); 6. Doru us-salom (omonlik diyori); 7. Dor ul-muqoma (turar joy).

J.ga vakil qilingan farishta Rizvon deb ataladi. Ahli sunna val-jamoaning e’tiqodiga ko‘ra, J. hozirda yaratib qo‘yilgan bo‘lib, qaysi joydaligi faqat Allohgagina ma’lum va u hech qachon yo‘q bo‘lib ketmaydi.

N.ning asarlarida, lirik chekinishlarida, hamd va munojotlarida jannat, bihisht so‘zlariga tez-tez duch kelamiz. U bu so‘zlar orqali Allohga bo‘lgan ishqiy holatlarni, falsafiy mushohadalarni, J.ga erishtiradigan amal va fazilatlarni hamda J.dan afzal bo‘lgan holat va narsalarni bayon qiladi. Bir baytida tazod va tashbeh san’atlarini qo‘llab, tikan J. gulini vasf qilishda gung bo‘lganidek, tilning ham Allohga hamd aytishi oson emasligini ta’kidlab o‘tadi:

Navoiy qaysi til birla sening hamding
bayon qilsun,
Tikan jannat guli vasfin qilurda
gung erur go‘yo.

N. g‘azallarida J.dan maqsad yor jamoli ekani, yorsiz jannatning qadri yo‘qligi bir qator g‘azallarda u yoki bu mazmunda ko‘zga tashlanadi. Bir baytida do‘st (yor) ko‘yida gadolig‘ qilishni, J. tilab umr o‘tkazishdan afzal biladi. J.ni bir ko‘rimsiz bog‘ga, do‘st (Alloh) ko‘yida gadolik qilishni esa podsholikka o‘xshatadi.

Tilab jannatni, o‘tmon do‘st ko‘yida
gadolig‘din,
Muhaqqar bog‘ uchun kechmak
bo‘lurmu podsholig‘din.

N. boshqa bir baytida J.ni ta’riflaydigan faqihga e’tiroz bildirib, “kulbayi xammor”, ya’ni komil murshidning kulbasini J. va Kavsar bulog‘idan afzal biladi.

Qasri jannat birla Kavsar mayli qilmon, ey faqih,
Kim ko‘ngul ulfat tutubtur kulbayi xammor ila.

N. ruboiylaridan birida zohidga hur-u J., o‘ziga esa jonona-yu mayxona kerakligini ayta-

di. Matndagi jonona, mayxona, soqiy kabi so‘zlar majoziy, tasavvufiy ma’nodadir. Ya’ni, yor (Alloh), mayxona esa – ilohiy ishq ulashiladigan joy, xonaqoh, pir huzuri va ilohiy ma’rifat to‘la orifning botini kabi ma’nolarni anglatib kelgan. Soqiy-u qadah ham murshid va uning fayzga to‘la qalbidir. Ulug‘ shoir ushbu ruboiyda boshqa g‘azallarda bo‘lgani kabi ishq va ma’shuq vaslini J.dan ustun qo‘yadi:

Zohid, senga hur, manga jonona kerak,
Jannat sanga bo‘lsun, manga mayxona kerak.
Mayxona aro soqiy-u paymona kerak,
Paymona necha bo‘lsa to‘la, yona kerak.

N. “M.Q.”dagi tanbehlarining birida aytadiki, kim qaysi bir guruhga ergashsa, o‘sha guruhning yo‘lini va ravishini tutadi, ular yetgan joyga yetadi va borgan joylariga boradi. Nuh (a.s.) o‘g‘li kofirlarga ergashgani uchun tamug‘dan joy oldi. As’hobi kahf iti esa ularga ergashib, J.ga kirdi.

Nabiy o‘g‘li tomug‘ni qildi maskan,
Tomug‘ ahli guruhin chun erishti.
Va lekin Jannat ahli payravi it,
Yetishti qaydakim ul el yetishti.

N. “A.” asarida “Al-jannatu tahta aqdomi ummahotikum”, (“Jannat onalar oyog‘i ostidadur”), hadisini she’riy tarjima qilar ekan, ma’noni yanada kuchaytirib, J. istaganlar onalar oyog‘i tuprog‘i bo‘lishlari, uning xizmatini ado etishlari kerak, deydi.

Onalarning oyog‘i ostidadur
Ravzayi jannat-u jinon bog‘i.
Ravza bog‘i visolin istar esang,
Bo‘l onaning oyog‘i tufrog‘i.

N. asrlarida J. faqat diniy atama sifatida emas, “jannati vasl”, “jannati axloq”, “jannatoyin bazm” kabi istioraviy birikmalar orqali ham turli ma’nolarni ifodalab keladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ислом энциклопедияси. – Т., 2017; Абдулқодир Абдур Раҳим. Эътиқод дурдоналари.(“Бадъул амолий” шарҳи). – Т., 2016.*

S.R.

JANNATIY (XV asr) – shoir. N. “M.N.”da J. haqida “Xuroson mulkidin, tab’i yomon emas, ammo aqli ham yo‘qtur va toleyi ham”, – deb yozgan. N. ma’lumotiga ko‘ra J. bir necha vaqt podshoh mulozimi bo‘lgan, shunda boshiga ancha falokatlar tushgan, N. ularni bartaraf qilishga yordam qiladi. Lekin N. taassuf b-n “hech yerga yetkura olmadim, Holo dam ul nav’kim, bor erdi, sargardon yurur, Falak bila siteza qilg‘onni falak yengar ermish”, – deb yozadi.

“M.N.” tarjimoni Qazviniy N. ma’lumotlarini tarjima qilar ekan, “Sultonga mulozamat qilib, biror bahra ko‘rmadi, umr bo‘stonidan rohat gulini termadi”, – degan ma’noda aniqlik kiritadi. Bundan ko‘rinadiki, N. ochiq aytmagan “falokat”lar shoirning shohga munosabati b-n bog‘liq bo‘lishi ehtimoldan xoli emas.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

S.G‘.

“JANNATOSO” – “S.I.” dostonida Kashmir shohi Mallu qurdirgan shohona qasr, ishratxona. Kashmirni egallagan Iskandar shu qasrni o‘z manzilgohiga aylantiradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

A.A.

JASRATXON – N. yaratgan badiiy to‘qima obraz, hukmdor, ijobiy obraz. U “S.S.” dostonining 20-bobida shoh Bahromga birinchi yo‘lovchi – hindistonlik musofir tilidan shanba kuni aytib bergan “Avvali iqlim yo‘lidan keturgan musofirning fasona demagi” nomli faslning boshida

tasvirlagan. N. bu obrazni ancha maroq va zavq b-n yaratgan. O‘zining shoh otalar b-n bog‘liq orzu umidlarini, ezgu g‘oya va tushunchalarini J. haqida bitgan tasvirlariga singdirib yuborgan. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, N. uni bizga nafaqat Hindistonning adolatli hukmdori, balki shafqatli ota sifatida ham mahorat b-n tanishtirishga harakat qilgan. Faslda J.ning mamlakatni adolatli boshqarishi b-n birga, valiahd o‘g‘li Farruxning ta’lim-tarbiyasiga qaratgan e’tiborini ham maqtovga loyiq, deb ishonarli tarzda poetik talqin qilgan. Ammo poetik talqinlarda esa qaysidir ma’noda Sulton Husayn Boyqaroga va uning 25 nafar o‘g‘il-qiziga qaratilgan ishora borligini sezish mumkin.

Ad.: *Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Ўзбек адабиёти тарихи. 5 томлик, 2-том. – Т., 1977.*

B.R.

JAHONSHOH Mirzo (taxallusi: Jahonshoh Haqiqiy (1405−1467, Tabriz) – davlat arbobi va zullisonayn shoir. Qoraquyunlilar davlatiga asos solgan Qora Yusufning o‘g‘li bo‘lib, otasidan so‘ng 1437-y. taxtga o‘tirgan. 1467-y. Uzun Hasan boshchiligidagi oqquyunlilar qo‘shinidan yengiladi va o‘zi o‘ldiriladi.

Davlat ishlaridan bo‘sh vaqtlarida badiiy ijod b-n shug‘ullangan shoh-shoir merosining to‘la hajmi hozirga qadar aniqlanmagan. Asarlarining ikki qo‘lyozmasi ma’lum bo‘lib, biri Britaniya muzeyida, ikkinchisi Yerevandagi Qo‘lyozmalar institutida saqlanadi. Zullisonayn ijodkor bo‘lib, turkiy tildagi 91 g‘azali va 36 ruboiysi, forsiydagi 116 g‘azali va 11 mustazodi yetib kelgan.

She’rlaridan namunalarni Abdurahmon Jomiyga jo‘natgan. Jomiy uning she’rlari b-n tanishgach, 28 baytdan iborat she’riy maktub yo‘llagan.

J.M. she’rlarida o‘sha davrdagi hurufiylik ta’limotining, Nasimiy ijodining ta’siri kuchli.

J.M.ning turkiy merosi Ozarbayjon va Turkmanistonda nashr etilgan. Uning ijodidan ruboiy nomi ostida taqdim etilgan namunalar aslida Lutfiy va Nasimiy ijodidagi kabi ramali musaddasi mahzuf (maqsur) vaznida yozilgan to‘rtliklar bo‘lib, bu turkiy she’riyatda tuyuq vazni hisoblanadi.

N. “M.N.”ning ijodkor temuriylarga bag‘ishlangan 7-majlisida J.M. “dag‘i she’r aytur erdi” deb quyidagi matla’sini keltirib o‘tadi:

Az lutfi do‘st yoft haqiqiy murod dil,
Bejidd-u jahdi toat-u beminnati amal.

Tarj.: Toat jiddu jahdi-yu minnatsiz amal tufayli do‘st lutfi bilan dil o‘zining haqiqiy maqsadiga muyassar bo‘ldi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Режебов Р. Жаҳанша Хакыкы // Жаҳанша Хакыкы. Гошгулар. – Ашгабат, 1999; Жаҳоншоҳ Ҳақиқий. Ғазаллар ва рубоийлар. – Баку, 1988 (араб ёзувида).*

E.O.

JIRMUNSKIY Viktor Maksimovich (1891–1971) – adabiyotshunos. J.V.M. o‘zbek xalq eposi haqida H.Zarifov b-n birga tadqiqot yozgan. (1947), “Alpomish” dostoni haqida va “Alpomish” b-n Gomer “Odisseya”sining qiyosiy tahlilini yaratgan. J.V.M. “Alisher Navoiy va Sharq adabiyotlarida Renessans” nomli tadqiqotning muallifidir. Maqolada ta’kidlanishicha, “Sharq Renessansi” tushunchasi antik adabiyot va san’atni yangidan uyg‘onishi b-n emas, balki yanada chuqur va umumiy tartibdagi faktlar, chunonchi, shaxsning o‘rta asr jamiyatidagi tabaqaviy-korporativ bog‘liqlikdan ozod bo‘lishi (emansipatsiyasi), inson tafakkurining ilohiy dogmatizmdan qutilishi, madaniyat, ilm-fan va san’at rivoji b-n xarakterlanadi.

J.V.M. shoirning qadimgi o‘zbek tilidagi klassik poeziyaning asoschisi ekani, mehnat fa-

oliyati, “F.Sh.”dagi N. ideologiyasi, “L.M.”dagi ishqi majoziy konsepsiyasini ochib berish orqali shoirning jahon adabiyotidan chetda emasligi, uning ijodi Renessans davri shoir va mutafakkirlarining ilg‘or g‘oyalari b-n g‘oyat yaqinligini dalillab beradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Берков П.Н. Виктор Максимович Жирмунский как литературовед // Л., 1961. №3. Левин О. Эткинд Е. Жирмунский В.М. – теоретик и историк литературы // Русская литература, 1966. №4.*

G.X.

JIRJIS (a.s.) – payg‘ambar. N. “T.A.H.”, “T.M.A.” asarlarida unga alohida firqa bag‘ishlagan. Payg‘ambarlar haqidagi qism Jirjis (a.s.) b-n yakunlangan. N. yozishicha, J. (a.s.) Shom viloyatining Falastin shahrida yashovchi mol-mulki ko‘p savdogar bo‘lgan. Bir kuni u ancha sovg‘a-salomlar, hadyalar olib, Mo‘sul degan o‘z davrining podshohi huzuriga xalqiga osoyishtalik so‘rash va hidoyatga boshlash maqsadida yo‘l oladi. Zolim va butparast podshoh oltin va javohirdan Afluq degan katta bir but yasab, xaloyiqni unga sig‘inishga buyurar va kimki gapiga kirmasa, halok qilardi. J. (a.s.) ittifoqo, u podshoh huzuriga yetib kelganda, gulxan yoqib, xalqni Afluqqa ibodat qilishga majburlayotgan edi. Uning izmiga bo‘ysunmayotganlarni gulxanga tashlayotgan edi. J. (a.s.) bu holni ko‘rgach, g‘azablanib, yig‘ib kelgan barcha mol-dunyosini nochorlarga ulashib yuboradi. So‘ngra o‘zi Haq taolo amri b-n zolim shohga nasihat qilib, Alloh taolo ibodatiga chaqiradi. Zolim shoh esa: “Agar Afluqga sajda qilsang, xalossan, bo‘lmasa, azoblab halok qilaman”, deydi. Gapini qabul qilmagan J. (a.s.)ni temir taroqlar b-n barcha a’zolarini, tomir-u paylarini bir-biridin ayirib, temir qoziqni o‘tga toblab, boshiga qoqtiradi va zindonga solib, chormix qilib, bir ustunga bog‘lab qo‘yadi. Yarim kechasi Haq taolo bir farishtani yuboradi, u J. (a.s.)ni ustun ostidin chiqarib oladi. Alloh badaniga ruh kirgizib, uni nubuvvat davlatiga musharraf qiladi. Shundan keyin Haq taolo J. (a.s.)ga: “Sabrli bo‘l, g‘am yema, seni yetti yil bu kofirlar balosiga mubtalo qilaman, senga boshqa payg‘ambarlarga berilmagan mo‘jizalar ato qilaman, seni uch marta kofirlar qo‘lida o‘ldirtiraman, yana jon bag‘ishlayman. So‘ngra o‘z duoying bilan jannatga kiritaman”, deydi. Shundan so‘ng J. (a.s.) u diyonatsiz podsho dargohiga borib nasihatlar qiladi. Podsho uni e’tiqodidan qaytarish u-n turli azoblarga soladi: uni boshidan arralab, ikkiga bo‘lib tashlaydi, uni qayta-qayta qatl qiladi, lekin har bir qatldan so‘ng Alloh uni tiriltiradi.

J. (a.s.) mo‘jizalar ko‘rsatib, kambag‘al bechora kampirning o‘lgan ho‘kizlarini tiriltiradi, sehrgarlarning sehrini botil qiladi, o‘liklarni qabrdan turg‘izadi, yog‘och kursilarni daraxtga aylantiradi va h.k. Oxir-oqibat, yetti yil o‘tgach, J. (a.s.) va’daga binoan Allohga duo qiladi. Alloh o‘t sochadigan bulut vositasida barcha kofirlarni halok qiladi. J. (a.s.)ni jannatiylardan qilib, o‘z rahmatiga qovushtiradi.

Jirjiski, oyini risolat tuzdi,
Kufr ahliga ko‘b mo‘jizalar ko‘rguzdi.
Ne sud agar elni dami tirguzdi
Kim, tori hayotin necha qotla uzdi.

N. “T.M.A.”da podshoh Dorob haqida: “Dorobjurd shahrini ul bino qilib, o‘z ismiga moslab Dorob qo‘ydi. Dorob asrining payg‘ambarlaridan Jirjis (a.s.) va hukamodan Aflotun edi”, deb yozadi. Demak, J. (a.s.) shoh Dorob va Aflotun hakimlar bilan bir davrda yashagan.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Носируддин Бурҳониддин Рабғузий. Қиссаси Рабғузий. – Т., 2009.*

S.R.

“JISMIM ARO JON AYLASAM” – N. ning “Navodir un-nihoya” devoniga kiritilgan g‘azal:

Xilvate topib, seni jismim aro jon aylasam,
Balki jon xilvatsaroyi ichra mehmon aylasam.

Xilvat eldin yoshurun, xilvat aro tan yoshurun
Tanda jon yanglig‘ seni jon ichra pinhon aylasam.

Anda ham jon pardasin har sari osib satr uchun,
Vasling ixfosin nechakim, bo‘lg‘ay imkon, aylasam.

Chun bu xilvat ichra ne o‘zluk erur
mahram, ne men,
Har ne nomahram durur, o‘zdin
parishon aylasam.

Daf’ o‘lub ag‘yor, topsam bor ul xilvat aro,
Bezabonlig‘ birla sharhi dardi hijron aylasam.

Umri boqiy topqamen, bir lahza ushbu hol aro,
O‘zni bexud, ko‘zni ruxsoringg‘a
hayron aylasam.

Ey Navoiy, dema iqror ayla ishqi tarkini
Kim inong‘ay, gar o‘zumga buyla
bo‘hton aylasam.

Tasavvufga bag‘ishlangan mo‘tabar kitoblarda takror-takror keltiriladigan bir hikoyat bor: naql qilinishicha, Shayx Samnunning majlisida bir odam uning yoniga kelib o‘tiribdi-da, undan “Muhabbat nedur?” – deya so‘rabdi. “Bugun bu masalani tushunmoqqa qodir biror-bir kimsa yo‘qdur”, – debdi Samnun. Shunda uning yoniga bir qush kelib qo‘nibdi. Shayx qushni tizzasiga olib, “Muhabbatni anglagan biror jonzot bo‘lsa, mana shu qush erur”, debdi-da, unga yuzlanib so‘z boshlabdi: “So‘fiylar ishq va muhabbatda shu, shu... darajalarga yuksaldilar. Shunday, shunday sirlarni mushohada etdilar...” singari bir qancha gaplarni aytibdi. Samnun ishq haqida shu qadar ta’sirli gapiribdiki, bir payt uning tizzasidagi qush o‘lik holida yerga qulab tushibdi. Va bu hol majlis ahlini hayron-u lol etibdi.

N.ning oshiqona g‘azallarini o‘qiganimda mana shu hikoyat tez-tez yodga kelaveradi. Ularning sir va ta’sir quvvatini ta’riflash qiyin. Ba’zan ularning bashar xayliga mo‘ljallanganligiga aql ham uncha bovar etmaydi. Chunki N. ning aksariyat g‘azallari zavqi ruhoniy ila bitilgan. Bizningcha, yuqoridagi g‘azal haqida ham shunday deyish mumkin. Najmiddin Kubroning ta’kidlashlaricha, “Muhabbatning intihosi ishqning ibtidosi erur. Muhabbat qalb uchun, ishq esa ruh uchundir”. Shuningdek, Haq sifatlarining mushohada etilishicha, muhabbat, Haq fe’llari nurining idrokiga ishq va Haq zoti nurining mushohadasiga uns deyilmish. N.:

Xilvate topib, seni jismim aro jon aylasam,
Balki jon xilvatsaroyi ichra mehmon aylasam,

degan misralarni yozganida qarilik fasliga yetgan va ruhida uns holi g‘olib edi. Buni baytning umumiy mazmunidan, xususan, xilvat orzusidan ilg‘ash qiyin emas. Xilvat – xalqdan uzoqlashib, ulardan ayri yashash u-n biror-bir go‘shaga chekinish demak. Tasavvufiy ma’noda xilvat yoki uzlatdan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad yomon axloqdan ajralish, tuban ishlardan tamoman voz kechish, qalbni jilolantirib, ruhni huzur va farog‘atga yetishtirish. Bu uzoq davom etadigan hodisa emas. Lekin shu qisqa muddatda ma’shuqa oshiqning jismi aro jonga aylanishi mumkin. N. esa oshiqlar u-n doimiy orzu bo‘lib kelgan yor ila xilvat xususida so‘zlayotir. Ammo bu xilvatning mazmun-mohiyati tamoman boshqacha. Chunonchi: oshiq yorni jismi ichra jon etib “xilvat saroyi ichra mehmon” qilish b-n kifoyalanmasdan, “tanda jon yanglig‘” uni jon bag‘rida pinhon tutmoqchi:

Xilvat eldin yoshurun, xilvat aro tan yoshurun
Tanda jon yanglig‘ seni jon ichra pinhon aylasam.

Ma’lumki, jon forsiy so‘z bo‘lib, ruh, ko‘ngil, tiriklik nafasi singari ma’nolarni ifodalagan.

Tasavvuf va tasavvuf adabiyotida jon tushunchasi juda kengaytirilib, bu kalima tarkibiga yangi ma'nolar kiritilgan. M-n, sayri suluk yo'liga endigina kirgan darveshlarga mavlaviylar "jon" deyishgan. Ko'p tariqatlarda esa jondan murod me'roji ma'naviy bo'lgan. Bunday yuksalish holidan yiroq she'rxon visolni yashirish, maxfiy saqlash u-n "jon pardasi"ni imkoni bo'lgani qadar har tomonga osish yoki qanday osishni umuman tasavvur qila olmaydi:

Anda ham jon pardasin har sari osib satr uchun,
Vasling ixfosin nechakim, bo'lg'ay imkon, aylasam.

Xo'sh, bu gaplar kimga qaratilgan va ularning haqiqatini kim to'g'ri anglay oladi? O'zlik masalasida bosh qotirmagan, o'zlikdan kechish yo'l-yo'riqlaridan bexabar hech kim. Mosivodan (Haqdan boshqa hammasidan) butunlay forig' bo'lib Haqqa bog'langan chin oshiq yoki orif mana bu baytda gap nima to'g'risida ekanligini tez va xatosiz bilib oladi:

Chun bu xilvat ichra ne o'zluk
erur mahram, ne men,
Har ne nomahram durur, o'zdin
parishon aylasam.

Aslida "o'zluk" ham bir men. Ammo N. shunday bir "xilvat"dan bahs yuritayotirki, unda o'zlikdan nisbatan ajralgan, aniqrog'i, ishq otashida toblangan ikkinchi "men" ham yorga to'la mahram bo'lishga qodir emas. Biroq "har ne nomahram" bo'lsa, barcha-barchasini o'zdin yiroqlashtirishga qasd qilgan xuddi ana shu "men" g'azalning bosh qahramonidir. Uning u-n nafs va nafsoniy mayllar ag'yor bo'lganidek, Haqdan yiroq qolganlar va voqif bo'lmaganlar ham ag'yordir. U ishq izhoriga til nechog'lik ojiz deb bilsa, hijron dardi sharhida ham "bezabonlig'" "usuli"ni tanlaydi:

Daf' o'lub ag'yor, topsam bor ul xilvat aro,
Bezabonlig' birla sharhi dardi hijron aylasam.

Tasavvur qilingki, oshiqning xilvatga daxldor va baytma-bayt ta'kidlanib kelingan deyarli barcha istak yoxud xohishlari ro'yobga chiqdi. U endi mutlaq forig' va sokin odam. Bunday holning hikmati nima? Birinchi hikmati, lahza mazmuni, lahza sururini o'zida mujassamlashtirgan va lahza nuridan munavvar holga sohib bo'lish. Zero, boqiy umr asrori "bir lahzalik ushbu hol aro" yashirindir. Shu bois ham oshiq hech ikkilanmasdan, "Umri boqiy topqamen, bir lahza ushbu hol aro", deydi. Ikkinchi hikmat, oshiqlik kamolini belgilovchi bexudlik yoki bexushlik "maqomi"ga ko'tarilish. Bu maqomda til ishq asroriga mahram emasligini to'la anglagan oshiq bir umr jamol zavqi ila nafas olishni istaydi:

Umri boqiy topqamen, bir lahza ushbu hol aro,
O'zni bexud, ko'zni ruxsoringg'a hayron aylasam.

Sirtdan qaralganda, g'azal maqta'sidagi fikr oldingi baytlardagi gaplar b-n mantiqan uncha bog'lanmaydi. Chunki o'quvchi ishq tarki iqrorini xayolga ham keltirmaydi. Aksincha, sultoniy bir holga yetishgan oshiqlikning istiqboliga o'zicha inongisi keladi. Ammo g'azalda talqin etilgan "xilvat" tuyg'usini hamma ham idrok qilishga qodir emas. Ayniqsa, o'zdin kechib hayrat vodiysiga yetgan "bexud" oshiq ahvoliga ko'pchilik boshqacha nigohda qarashi tabiiydir. Shoir masalaning shu jihatini ham hisobga oladi va ishq yo'lidan chekinishga aslo iloji yo'qligini shunday tarzda bayon etadi:

Ey Navoiy, dema iqror ayla ishqi tarkini
Kim inong'ay, gar o'zumga buyla
bo'hton aylasam.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011.*

I.H.

JOBIR – N.ning "S.S." dostonidagi salbiy obraz. Ma'lumki, N.ning ushbu asari qoliplovchi

hikoya va uning tarkibidagi yettita hikoyatdan iborat bo‘lib, ulardan biri “Mehr va Suhayl”dir. “S.S.”ning ushbu beshinchi hikoyatida asosiy qahramonlar (Mehr, Suhayl) b-n bir qatorda salbiy, qaroqchilar boshlig‘i obrazi – J. ham mavjud. N. asarlarida boshqa ko‘plab obrazlar singari ushbu obraz ham mahorat b-n yaratilgan va muallif talonchilik b-n kun kechiruvchi, hiylagar, tuban bir shaxs qiyofasini, turmush tarzini tasvirlab bergan. J.ning Suhaylni yengish u-n qo‘llagan hiylasi uning makkorligini ko‘rsatsa, qaroqchilik b-n orttirilgan va J.ga qarashli orolda saqlanayotgan xazina va boyliklar uning mol-dunyoga hirs qo‘yganidan dalolat beradi. J. obraziga xos asosiy xususiyatlardan biri shafqatsizlik, zolimlikdir. N. buni J.ning o‘z so‘zlari vositasida ham ta’kidlaydi. U Suhaylga qarata shunday deydi:

Men bu zavraqni suvga to surdum,
Ming seningdekni suvda o‘lturdum.

Ko‘rinadiki, u faqat kishilarni talash, qaroqchilik b-n ularga qarashli mol-mulklarni tortib olish b-n cheklanmagan, balki ularni suvga cho‘ktirgan. N. mazkur obrazni uning tabiatidagi butun murakkabliklar b-n tasvirlaydi. Hiyla b-n Suhaylning kemasini g‘arq qilgan J. cho‘kayotgan Suhaylni qutqaradi, chunki undagi jasoratga qoyil qolgan edi. Lekin ayni paytda agar qo‘yib yuborsa o‘ch olishi mumkinligini o‘ylab, Suhaylni asirlikda saqlaydi. Shuningdek, J.ning Mehrga nisbatan hissiyotlari ham soxta emas edi. Uning Mehrni ko‘rganda hushidan ketib qolishi shunday deb hisoblashga asos beradi. J. – dengiz qaroqchilari boshlig‘i. Bunday obrazning N. asarida paydo bo‘lishida o‘sha davr realliklari ham muayyan rol o‘ynagan. Ma’lumki o‘rta asrlarda dengizchilikning rivojlanishi, yangi dengiz yo‘llarining ochilishi, savdo kemalari qatnovini kuchayishi yuz berdi. Shu b-n bog‘liq ravishda dengiz qaroqchiligining avj olishi ham kuzatildi. O‘sha davrda dengiz qaroqchilari haqidagi hikoyalar og‘izdan-og‘izga o‘tib yurgan, ularning ayrimlari mashhur bo‘lib ketgan, hatto afsonaviy shuhrat qozongan. Keyinchalik ular adabiyotga ham kirib kelgan, xususan, Yevropada yaratilgan sarguzasht asarlarda katta o‘rin egallagan. Dengiz qaroqchilari, ularning qaroqchilik yo‘li b-n to‘plagan boyliklari, turli orollarda saqlanayotgan yoki yashirilgan xazinalari sarguzasht janrida yozilgan asarlarning asosiy mavzularidan biri bo‘lib qolgan, ko‘plab qaroqchilarning obrazlari yaratilgan. Bulardan bir necha asr ilgari N. ijodida bu mavzuning ishlanishi va qaroqchi J. obrazining yaratilishi N. dahosining yana bir tasdig‘idir. Ma’lumki, N.ning “S.S.” dostoni Yevropada 1557-y.dan boshlab o‘n martadan oshiq nashr etilgan. Binobarin, Yevropa adiblarining mazkur hikoyat bilan tanish bo‘lishlari va u Yevropada yuqorida tilga olingan yo‘nalishdagi asarlarning, shu jumladan, qaroqchilar obrazlarining yaratilishida muayyan rol o‘ynagani ham ehtimoldan uzoq emas.

Ad.: *Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Ўзбек адабиёти тарихи, 5 жилдлик, 2-жилд. – Т., 1977; История всемирной летературы. – М., 1984.*

Q.E.

JOLINUS – mashhur yunon olimi Galen Klavdiy (milodiy 130–200) Sharq ilmiy, tarixiy va badiiy adabiyotida shu nom b-n yuritilgan hamda yirik donishmand-hakim sifatida talqin etilgan. N. ham “T.A.H.” asarida unga mashhur hakimlar sirasida maxsus fiqra ajratar ekan, avvalo, tabibligiga ishora etadi, uning hikmatlaridan namuna keltiradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

A.A.

JOMI MAS’UD – “S.S.” dostoni tarkibidagi to‘rtinchi iqlim musofiri hikoyatida berilgan tilsimli jom. N. uni Jomi Jamdan ham murakkab bir ixtiro sifatida tasvirlaydi:

...Qildi Mas'ud bir taraf imo,
Bo'ldi bir gul'uzor jilvanamo.

Kelturub jome, o'ylakim xurshid,
Ko'rmagan jom aning kabi Jamshid.

To'ldurub shahqa ayoq tutti
Kim, quyosh yanglig' uyni yorutti.

Dedi: uldur bu jomning holi
Ki, chu bir to'ldi – bo'lmag'ay xoli!

O'ng sori davr topsa paydar-pay,
Bo'lmag'ay kam kishi ichardin may

So'l sori yonsa nechakim to'lg'oy
Oz ichib ko'p, valek, kam bo'lg'oy.

Yasag'onda guruhi hikmat qism
Bog'lamishlar anga bundoq tilsim".

Tilsimli jom obrazlari N. ijodidagi ilmiy farazning yorqin ko'rinishlaridan biri bo'lib, shoir xislatining yuksak parvozidan, asarlarining xalq ertaklari, qadimgi mifologiya b-n mustahkam aloqasidan ravshan darak beradi. Ayni zamonda, bu misollar N.ning aniq fanlar, tabiiy bilimlar va ularning imkoniyatlaridan yaxshi xabardor bo'lganini, ilm-fan qudratiga yuksak umid va ishonch b-n qaraganini ko'rsatadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011.*

A.A., M.A.

JOMI TARAB – Q.: "Jomi Jam" ("Jomi ishratfizoy")

JOM (f.-t., – qadah, piyola, kosa) – N. lirikasida qo'llangan misol. Mis, oltin, kumush yoki rangli metaldan ishlangan may ichishga mo'ljallangan idish. Mumtoz adabiyotda pir ta'limi, undan yetadigan irfoniy huzur, oshiq qalbi va ilohiy fayz ma'nolarini ifodalaydi. "Orif insonlar ilohiy bodani jomdan ichib, tavhiddan sarmast bo'ladilar", − deydi Sajjodiy. Shuningdek, jom "g'ayb olamidan xabardor qalb va solikning zehni"ni ham anglatadiki, u faqat jom vositasida barcha yashirin haqiqatlarni topa oladi. N. she'riyatida jom "ishq ahlining ko'zgusi", vahdat mayi to'la ko'ngil ma'nolarini ham bildirgan:

Istaram, ko'zguda ko'rsam yor aksin bir nafas,
Soqiyo, maykim! Erur ishq ahlining ko'zgusi jom.

Jom timsolining oltin, billurin, ajal, fano, aysh, alast, no'sho-no'sh, azal, vahdat, minoyi, vasl, visol, molomol, shafaqgun, zumurradrang, hiloli, ishrat, vafo, jahonbin, Jamshid, ruhafzo, nilufari, nishotafzo, oyinagun, charxkirdor, mug'ona singari epitetlar b-n qo'llanilishi shoir g'azallarida ilgari surilayotgan fikr-mulohazalarning yanada yorqin, ishonarli va teran mazmun kasb etishiga ko'mak beradi. Ayniqsa, oltin jom, oltin qadah va oltin piyola kabi tushuncha-timsollar xarakterlidir. Jumladan, N. umrning g'animatligi, uning har bir daqiqasini qo'ldan boy bermaslik haqidagi hayotiy-falsafiy mushohadalari ifodasida "oltin jom" timsolini tilga olarkan, shodlik va hayot go'zalliklaridan zavqlanish ramzi sifatida ham qo'llanilgan o'rinlar uchraydi:

Chu subh nargis ochib ko'zni tutti oltun jom,
Sabuh favt o'ladur, nozaninlar, uyg'oning.

N.ning mavzudagi she'rlarida billurin, shafaqgun, zumurradrang, oyinagun, nilufari kabi yorqin ranglarda tasvirlangan may va jom timsollari ham bu hayotga muhabbat, shodlik va quvonch tuyg'ularini ifoda etgan. Quyidagi misralarda ham soqiydan zumrad – ko'k rangli qadahga aynan qizil may quyishni so'rash b-n, mazkur ranglarning o'rtasidagi mutanosiblik, uyg'unlik kishiga beixtiyor xush kayfiyat bag'ishlashiga ishora qilingan:

Soqiyo, jomi zumurradrang aro quy la'li may
Kim, erur shingarf behad xushnamo zangor ila.

Yoki bu olamning o‘tkinchiligi, inson hayoti taqdir hukmida ekani, har qanday ibtidoning, albatta, yakuni – intihosi bo‘lishi, tabiat doimiy tarzda yangilanib, o‘zgarib turishi kabi falsafiy fikr-qarashlar ajal jomi poetik birikmasi vositasida yuzaga chiqadi:

Soqiyo, chun ichkumizdur oqibat jomi ajal,
Boda tut andin burunkim, bizni o‘lturgay xumor.

Jomi no‘sho-no‘sh istiorasida esa ijodkor fikrlari yanada teran ma’no kasb eta borgan. U ma’rifat, ilohiy ishqdan zavq-shavqqa to‘lgan, mast-u mustag‘raq ko‘ngil timsoli hamdir:

Jomi no‘sho-no‘sh xushtur ul sifatkim, dayr aro.
Boda olib mug‘bacha, no‘sh aylabon
qildursa no‘sh.

Hamma vaqt ezgulikni o‘ylab, o‘ziga ergashgan odamlarni qalb saxovati b-n tarbiya qilgan, ularning irodasini chiniqtirgan, ko‘ngil ko‘zi ochiq, olam va odam sirlarini to‘la idrok etgan, hamdard, hammaslak kishilar komil inson sanalgan. Abdurahmon Jomiy tom ma’noda ana shunday shaxs bo‘lganki, uning qo‘lidan “hidoyat”, ya’ni to‘g‘ri, haq yo‘lga boshlovchi jom ichish N.ning hayotiy maslagiga aylangandi:

Ichursa jomi hidoyat, navo tuzub jome,
Navoiy, anda magar bo‘lg‘ay ijtinob manga.

Vahdat – Alloh taoloning yagonaligi, tavhid. Tasavvuf ahli nazdida vahdat Alloh taoloning yagonaligini tan olishdangina iborat bo‘lmay, balki u b-n birlik hosil etmoqlikka intilishdir. Bu mazmunlar jomi vahdat tushunchasi orqali yuzaga chiqadi:

Jomi vahdat no‘sh etar, ey shayx, mug‘ dayri aro,
Bodag‘a ulkim riyoyi xirqasin marhun etar.

Ma’lumki, tasavvufda may qadahi va komil inson qalbi ilohiy sirlarni o‘zida saqlashi jihatidan oyinayi jahonnamoga tenglashtiriladi. U ma’rifatli insonning ichki dunyosi, ruhiy olamiga ham ishoradir. Shuningdek, ilohiy asrorlardan ogoh komil insonning qalbi ham Jamshid jomi – Jomi jahonnamo yoki jomi jahonbinga nisbat beriladi. Chunki bu qalb ilohiy ma’rifatga kon bo‘lib, unga boqqan orif Alloh mohiyati, g‘ayb sirlaridan ogoh bo‘ladi. Mumtoz adabiyotda Jomi Jam, jomi jahonbin, jomi jahonnamo kabilar olam hodisalari, shuningdek, inson aql-zakovati anglab yetmagan sir-sinoatlarni, olamshumul haqiqatlarni ham oshkor etadigan o‘ziga xos poetik timsollardir.

Soqiyo, jomi jahonbin tutki, andin kashf etay,
Kim, ko‘p ish bu korgoh vaz’ida
mubhamdur manga?!

Ayon bo‘ladiki, N. she’riyatida jom timsoli, asosan tasavvufiy ma’nolarda talqin qilingan bo‘lib, ko‘pincha, komil insonning ilohiy fayz shu’lasidan charaqlab turgan sof, shaffof qalbini anglatadi.

Ad.: *Умар Ҳайём. Наврўзнома. – Т., 1990; Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005. Сажжодий Жаъфар Саййид. Фарҳанги мусталиҳоти урафои мутасаввифа ва шуаро. – Теҳрон, 1332 ҳ; Доктор Ҳасан Анварий. Фарҳанги бузруки сухан. Иборат аз 7 жилд. Жилд 3. – Теҳрон, 1381 ҳ/ш; Ҳаққул И. Тасаввуф ва шеърият. – Т., 1991; Комилов Н. Тасаввуф. – Т., 2011.*

M.A.

“JOME’ UT-TAVORIX JALOLIY” – XIII asrning II yarmi – XIV asrning I yarmi davrida yaratilgan fors tilidagi kitob. Muallifi Rashiddin Fazlulloh Hamadoniy bo‘lib, asar Eron, Ozarbayjon, O‘rta Osiyo mamlakatlari, qisman boshqa davlat va xalqlar tarixiga oid manba sifatidagi beqiyos ahamiyatga ega. Fransuzlardan Kartmer (1836), E.Bloshe (1911), rus sharqshunosi I.N.Berezin (1858–1888), ingliz manbashunosi E.G.Brounlar tarjima qilishgan.

N. o‘zining “T.M.A.” asarida peshdodiylar, Arduvon binni Yalosh, Yazdijird binni Bahrom tarixini yozishda mazkur kitobga tayangan.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Петрушевский И.П. Рашид-ад-дин и его исторический труд. Том 1, книга 1. М.–Л., 1952.*

A.A.

JOMI JAM – qadimiy Eron afsona va rivoyatlariga ko‘ra, Jamshidning yetti iqlim aks etgan jomi. Jomi jahonbin, jomi jahonnamo – jahonni ko‘rsatuvchi jom ham deyiladi. Unda dunyodagi barcha narsalar – burjlar, sayyoralar aks etgan. Firdavsiy “Shohnoma”sida J.J. tilga olinadi: Afrosiyobning qizi Manijaga oshiq bo‘lib, zindonga tushgan Bejanning ahvolini bilish u-n J.J.ga nigoh tashlagan Kayxusrav uni Turonzamin zindonida ko‘radi va Rustamni uni qutqarish u-n yuboradi. N.ning “F.Sh.” dostonida ham Farhod Shirinni va kelgusi voqealarni xoqon sandig‘idagi ko‘zguda ko‘radi.

Jomning Jamshidga nisbat berilishining sababi shundaki, u Kayxisrav tomonidan yaratilgan jomni yangidan yasagan. Kayxisrav handasa (geometriya) qonuniyatlari asosida bir jom yasatgan bo‘lib, uning atrofidagi yozuv va raqamlar hamda usturlob chiziqlari sayyoralar harakati va boshqalarni ko‘rsatib turgan. Tarix kitoblarida yozilishicha, u bu jom vositasida dunyoda kechayotgan voqea-hodisalardan xabardor bo‘lib turgan.

Fors-tojik shoiri Avhadiy Marog‘iy “Jomi jam” dostonini yaratgan.

Tasavvufda J.J.dan maqsad komil orifning ko‘ngli.

Ko‘ngulni dahrdin oshufta qilmakim, xushtur
Ki, tiyra bo‘lmasa jomi jahonnamo hargiz.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва табъироти ирфоний. – Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.); Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005. Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. – Душанбе, 1987; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 3. – Душанбе, 2004.*

A.A.

JOMI JAHONBIN – **Q.: “Jomi jahonnamo”.**

JOMI JAHONNAMO − jahonni ko‘rsatuvchi jom. Jomi jahonbin (jahonni ko‘ruvchi) Jomi Jamshid, Jomi Jam, jomi getinamo (jahonni ko‘rsatuvchi jom), jomi getiafro‘z (olamni yorituvchi jom), Jomi Iskandar, oyinayi jahonnamo nomlari b-n ham yuritiladi.

Tasavvuf falsafasiga ko‘ra, dunyo hirs-u havasi, nafs istak-xohishlari va jismoniy intilishlardan najot topgan ko‘ngil shaffof ko‘zguday yaraqlab, J.J. kabi bo‘lar va unda hamma narsa aslidagidek aks etar ekan. Shuning u-n ham komil orifning qalbi va Haq mardining botinini J.J.ga nisbat beradilar. “Solik bu “jomi jahonnamo”ga nazar solib, uning sirlaridan ogoh bo‘ladi hamda qalbini g‘urur va o‘zligidan xalos etib, do‘st ishqi bilan limmo-lim to‘ldiradi” (S.Rafiddin). Umuman, J.J. ilohiy nur jilvasi va ma’rifat siriga oshno ko‘ngil ma’nosida keladi.

N. ijodida bu istiloh o‘zining rang-barang ko‘rinishlari va turli-tuman ma’nolarida juda ko‘p qo‘llanadi. Shoirning yozishicha, jahon ahvolini ravshan bilmoqchi bo‘lsang, uni mushohada qiladigan jahonni ko‘rsatuvchi oyina bo‘lmish qadah − ya’ni ma’rifatdan ogoh ko‘ngil kifoya:

Desam anglay jahon holini ravshan,
Qadah oyinayi getinamo bas.

Mana bu baytida olamdagi xilma-xil ishlarning ma’no-mazmunini tushunib yetish u-n Xudodan ilohiy sirlar mohiyatini anglashga qodir ko‘ngil so‘raydi:

Soqiyo, jomi jahonnamo tutki, andin kashf etay −
Kim, ko‘p ish bu korgah vaz’ida
mubhamdir manga.

Quyidagi baytlarda esa ko‘ngil − J.J. ekani, uni dunyo aloyiqlari g‘ubori b-n xira qilmaslik, bil’aks, ma’rifat nuri b-n poklab, jahon ahvolini mushohada qilish kerakligi g‘oyasini ilgari suradi:

Ko‘ngulni dahrdin oshufta qilmakim, xushtur
Ki, tiyra bo‘lmasa jomi jahonnamo hargiz. −
Ko‘ngul jomi jahonbindir to‘lo qil sof may birla
Ki, solg‘ay aks nekim bo‘lsa ahvoli jahon unda. –

Ma’lum bo‘ladiki, J.J. − komil orifning ko‘ngli. Dunyo, nafs, vujud tashvishlaridan qutulgan, ularning borligini unutib, butun fikr-u zikrini yagona Allohga qaratgan insonning qalbi oyinaday pok bo‘ladiki, jumla olam, kurrayi zaminda yuz berayotgan voqealar unda aks etadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва табъироти ирфони. – Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.); (Изоҳлар қисми); Очилов Э. Бир ҳовуч дур. – Т., 2011; Асадов М. Соқийнома: тарих ва поэтика. – Т., 2020.*

M.A., E.O.

JOMI ISHRATFIZOY – “S.I.” dostonida tasvirlangan jom. Iskandar Kashmirga yurish qilib, u yerning hukmdori Malluni qochishga majbur qilganda uning xazinaboni qoladi va Iskandarga ko‘p sovg‘alar yuboradi. Ulardan biri J.I. edi. Bu jomni ham Jomi getinamoy singari Jamshid buyrug‘i b-n hakimlar yasagan bo‘lib, u har doim boda b-n to‘lib turgan va har qancha ichilsa ham tugamagan. Bundan tashqari uni ag‘darsa yoki qiyshaytirsa ham to‘kilmas ekan. Iskandar bu tuhfadan mamnun bo‘lib, majlis tuzib shodlik va xursandchilik qiladi. N. uni shunday tasvirlagan:

Alardan biri ul duraxshanda jom,
Ichinda to‘la bodayi la’lfom.

Ki har nechakim ichsa kam bo‘lmayin,
Icha olmayin kimsa ham bo‘lmayin.

Kim may jozibi bo‘lg‘ay ajzo anga,
Tamom bo‘lmag‘ay boda aslo anga.

Necha ichsalar bo‘lg‘ay ul labolab,
Zihi xush tamosho, zihi xush tarab.

Agarchi necha ichsa uksulmagay,
Vale egri ham bo‘lsa ham to‘kulmagay.

J.I. haqida yozar ekan, N. Jamshid yasattirgan ikki Jomning biri – Jomi getinamo mashhur ekani, lekin ikkinchisi – J.I. haqida kam yozilganini va shu sababli ushbu jom ta’rifiga alohida to‘xtalganini qayd qiladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Ўзбек адабиёти тарихи, 5 томлик, 2-том, – Т., 1977; История узбекской литературы в двух томах. 1-том, 1982; ЎзМЭ. 3-жилд. – Т., 2001.*

Q.E.

JOMIY ABUNASR (taxallusi; to‘liq ismi: Abunasr ibn Abulhasan ibn Ahmad ibn Muhammad Nomiqiy (1049–1141, Hirot) − fors-tojik olimi, shoiri, tariqat arbobi. Zindapil yoki Jandapil nomi b-n mashhur J. Jom viloyatining Nomiq qishlog‘ida zodagon oilasida tug‘ilgan.

Tasavvuf odobi, sayr-u suluk maqomlari, so‘fiylar holi va qoidalaridan bahs yurituvchi “Anis ut-tolibin” (“Toliblar do‘sti”), “Kunuz ul-hikmat” (“Hikmat xazinasi”), “Siroj ul-soyirin” (“Sayr qiluvchilar mayog‘i”), “Miftoh un-najot” (“Najot kaliti”), “Ravzat ul-munzabin” (“Xilvat bog‘lar”), “Burhon ul-haqiqat” (“Haqiqat dalili”), “Futuh al-qulub” (“Qalblar kashfi”), “Futuh al-ruh” (“Jon kashfi”), “E’tiqodnoma”, “Al-zuhdiyot” (“Zuhd-

noma”) kabi ko‘plab asarlari mavjud. 4 ming bayt hajmidagi g‘azal va ruboiylari yetib kelgan. She’rlari xalq ichida mashhurligidan “Sabzpari va Zardpari” (“Yashilpari va Sariqpari”) hamda “Chahor pari” (“To‘rt pari”) dostonlari ichiga ko‘plab g‘azallari kirib qolgan.

“N.M.”da keltirilishicha, “o‘n sakkiz yil riyozatlar tortqonidin so‘ngra qirq yoshida ani xalq ichiga yuboribdurlar va ladunniy ilm eshiklarin yuziga ochibdurlar. Va uch yuz toy qog‘azdin ortuqdurki, tavhidu ma’rifat ilmida va sirru hikmat ma’rifatida va tariqat ravishida va haqiqat bayonida tasnif qilibdurki, hech olim va hakim anga e’tiroz qilmaydur va qila olmaydur. Bu tasnifot barcha oyoti Qur’oniy va Rasul s.a.v. axbor va ahodisi bila muqayyad va muayyaddur”.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988; Ҳомидий Ҳ. Тасаввуф алломалари. – Т., 2004; Рубоийнома. – Теҳрон, 1372 (ҳ.-ш.); Шайх Аҳмади Жом. Рубоийлар // Донишмандлар туҳфаси. – Т., 2009.*

E.O., Sh.R.

JOMIY ABDURAHMON (to‘liq ismi: Nuriddin Abdurahmon ibn Ahmad Jomiy) (1414, Jom – 1492, Hirot) – shoir, mutafakkir. Jom viloyatidagi Xarjard qasabasida din va shariat ilmining peshvolaridan bo‘lgan Nizomiddin Ahmad oilasida tug‘ilgan. N. o‘zining “X.M.” asarida xabar berishicha, J.A. b-n birinchi marta Abu Said hukmronligi davrida Hirot yaqinidagi Xiyobon degan joyda, hali N. biron mavqe’ kasb etmagan vaqtda hamma qatori ko‘rishgan J.A. bu suhbatda unga o‘qish va tanishish u-n kichik bir risolasini beradi. J.A. b-n N. o‘rtasidagi do‘stlik, haqiqiy yaqinlik N. Samarqanddan Hirotga qaytib kelgandan keyin (1469) boshlangan. Bu davrga kelib J.A. Hirotning eng mashhur shoiri va olimi darajasiga ko‘tarilgan, uni hurmat qilmaydigan va suhbatiga intilmaydigan kishi bo‘lmagan. N. bu haqda “X.M.”da: “...shahr (Hirot)ning jame’ ulamo va akobiri va atrofi alarg‘a mulozamat va taraddud bunyod qildilar, davrning arjumandlari va ahdning sarbalandlari ul hazratning oliyshon ostonig‘a yuz yetkururlar erdi va iltijo keltirurlar erdi. Soyir niyozmandlar va ommayi bexesh va payvandlar ham ko‘zlarin ul eshik tufrog‘idin yoraturlar erdi”, – deb yozadi.

1476–1477-yy.da N. o‘sha davrdagi odatga ko‘ra, J.ni o‘ziga pir, ma’naviy ustoz sifatida tanidi. J.A. va N. orasidagi yaqinlik, avvalo, o‘sha davrning ijtimoiy-siyosiy voqealariga munosabatda ko‘zga tashlanadi. “Munshoati Jomiy”-dagi 33 maktubning, “Navoiy albomi”dagi J.A. qalamiga oid 317 maktubdan katta qismi N.ga yo‘llangan bo‘lib, ularda J.A. N.ning o‘sha davrdagi katta ijtimoiy-siyosiy mavqeyidan “Temuriy davlatidagi tinmay davom etayotgan o‘zaro nizolar munosabati bilan solingan behisob soliqlar ostida ezilgan oddiy odamlar – dehqonlar va hunarmandlarning taqdirini yengillatish uchun” foydalanishga harakat qilgan. Bu maktublarni maxsus o‘rgangan sharqshunos olim A.O‘runboyev J.A. bu maktublarda “moliyaviy boshqarishdagi boshboshdoqlikka, adolatsizlikka, xalqni ezishga qarshi chiqqani”ni yozadi. N. saroyda ish olib borish qiyin bo‘lib qolgan chog‘larda, bu xizmatni tark etish borasida J.A. b-n maslahatlashganda, J.A. unga xizmatdan ketishni maslahat bermagan, bu b-n u o‘z g‘oyalarini N. orqali amalga oshirishga intilgan. J.A. bir xatida yozadi: “...qudratli sultonning yonida bo‘lmoq – katta baxt va buning shukronasi – o‘zini va o‘z vaqtini musulmonlar manfaati, qattiqqo‘l odamlarning va zolimlarning yovuzliklarini yo‘qotish yo‘lida sarf etmoqdir...”

Shu tarzda J.A. o‘nlab, yuzlab bechorahol musofirlarning, madrasalardagi mullavachchalarning, beva-bechoralarning ahvolini yaxshilash yo‘llarini qidirar ekan, N. doim unga imkoni bo-

richa yordam qo‘lini cho‘zar, ular o‘rtasidagi yaqinlik umuminsoniy ma’no kasb etib borar edi. J.A. N. orqali podshohlik ishlariga ham goho aralashib turgan. M-n, kunlarning birida H.Boyqaroning Qunduzga yurish qilmoqchi bo‘lganini eshitgan J.A. N.ga murojaat qilib: “Ulcha mumkin bor, bu yurishning man’ig‘a sa’y qilg‘aysen va ul matlub surat bog‘lamag‘ay, azimat jazm bo‘lsa, bizga bitib yiborgaysen”, – degan. Ko‘rinadiki, N. va J.A. hech mahal mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy hayotdan chetda turmaganlar, doim xalq, mamlakat ahvolidan boxabar bo‘lganlar.

Bu ikki buyuk shaxs munosabatlarida, shubhasiz, adabiyot, san’at, ilm, madaniyat masalalari katta o‘rin tutgan. N. J.A.ni o‘z davrining eng ulug‘ shoirlari sifatida tan olgan va ko‘p vaqt uning maslahati b-n ish ko‘rgan. Xuddi shuningdek, J.A. ham N.ni eng yetuk ijodkor sifatida tan olgan, o‘zi yozgan biron yangi asarini N.ga ko‘rsatmasdan, o‘qitmasdan, u haqda N.ning fikrini olmasdan xalqqa e’lon qilmagan. “H.A.” da N. J.A.ni quyoshga, (“mehr”) o‘zini esa tufroqqa taqqoslab, bu o‘zaro ijodiy hamkorlik haqida quyidagi satrlarni bitgan edi:

Nomag‘akim roqim etib xomasin,
Ko‘rmadi-men ko‘rmayin el nomasin.

Mehr tulu’ ayladi chun tog‘ uza,
Tushti burun partavi tufrog‘ uza.

N.shunoslikda qayd etilishicha, N. J.A.ning 49 g‘azaliga tatabbu’ bog‘lagan. Xuddi shuningdek, J. ham N. ijodini izchil kuzatib borgan va eng yaxshi g‘azallariga o‘xshatmalar bitgan. M-n, N.ning “Koshki” radifli g‘azaliga:

Bar sari ko‘sari man xok bud-u koshki!
Poymoli on buti cholok bud-u koshki! –

matla’si b-n o‘xshatma yozgani ma’lum. “X.M.”-da xabar berilishicha, N.ning “Tuhfat ul-afkor” qasidasining yozilishiga J.A.ning “Lujjat ul-asror” qasidasi b-n tanishish sababchi bo‘lgan. N. o‘z qasidasini Marvda tugallab, darhol J.A. huzuriga yuborgan. J.A. unga nihoyatda yuqori baho bergan.

J.A. 1491-y. o‘z she’rlarini yig‘ib, alohida-alohida devon tuzish b-n shug‘ullanar ekan, bundan xabar topgan N. bu she’rlarning hammasini umumiy bir devonga birlashtirish, bu devon tarkibidagi uch devonga uch xil nom qo‘yishni maslahat beradi, ya’ni bu devonlarga, J.A. tomonidan yozilgan so‘zboshida qayd etilishicha, “Fotihat ush-shabob”, “Vositat ul-iqd”, “Xotamat ul-iqd” deb nom qo‘yilishiga N. sababchi bo‘lgan. Shu b-n birga J.A. N.ning o‘zidan ham shu o‘zi aytgan tartibda devon tuzishni iltimos qiladi. Ma’lumki, N. ham shu yo‘ldan borib tarkibida to‘rt devonga ega bo‘lgan “X.M.”ni tuzgan. Bu ikki buyuk ijodkor hamkorligining yorqin sahifalaridan biridir.

Shuningdek, J.A. “Nafahot ul-uns” (“Azizlar nafasi”) tazkirasi, “Risolayi musiqiy” (“Musiqa haqida risola”), “Risolayi muammo” (“Muammo haqida risola”) kabi 10 dan ortiq asarini do‘stining tavsiyasi b-n yozgan.

J.A. 7 ta doston yozib, ularni “Haft avrang” (“Yetti taxt”) nomi b-n atagan: “Silsilat uzzahab” (“Oltin zanjirlar”), “Tuhfat ul-ahror” (“Yaxshilar tuhfasi”), “Sibhat ul-abror” (“Tavqodorlar tasbehi”), “Yusuf va Zulayxo”, “Layli va Majnun, “Salomon va Absol”, “Xiradnomayi Iskandar” (“Iskandar pandnomasi”). Tasavvufga doir ham ko‘plab asarlar yozgan: 1) “Nafahot ul-uns” tazkirasi – unda 616 ta shayx-u avliyo haqida ma’lumot berilgan; 2) “Ashi’at ul-Lama’ot” – Faxriddin Iroqiyning “Lama’ot” asari sharhi; 3) “Sharhi ruboiyot” (“Ruboiylar sharhi”) – bunda o‘zining 46 ta ruboiysini tasavvuf istilohlari asosida sharhlagan; 4) “Naqd un-nufus fi sharhi “Naqsh al-fusus” (“Tanqidiy dalillar va ma’nolar naqshi sharhi”) – Muhyiddin Arabiyning “Naqsh ul-fusus” asari sharhi; 5) “Sharhi qasidayi Xamriya” (“Xamriya qasidasi sharhi”) – arab shoiri Ibn Forizning “Xamriya” qasidasi sharhi; 6) “Sharhi qasidayi Toiya” – Ibn Forizning “Qasidayi Toiya”si sharhi; 7) Risolat fi-l-vujud” (“Borliq haqida risola”); 8) “Lavoyeh” (“Loyihalar”) va

boshqa J. asarlarining umumiy soni 100 ga yaqin deb taxmin qiladilar. N. “X.M.” (“Besh hayrat”) asarida ularning 38 tasini sanab ko‘rsatadi.

J.A. nuktadon va noziktab’ adabiyotshunos ham edi. Uning “Risolayi aruz” asari aruz haqidagi eng mukammal qo‘llanmalardan hisoblanadi. U muammo janriga bag‘ishlab 4 ta risola yozgan. “Sharhi ruboiyot”ida o‘z ruboiylarini vahdati vujud ta’limoti asosida sharhlagan. Yana qofiya haqida maxsus risola yozgan. Sharq so‘z san’atidagi bir necha mashhur qasidalarga alohida-alohida sharhlar bitgan. Sa’diyning “Guliston”iga nazira tarzida yaratilgan “Bahoriston” pandnomasining she’r va shoirlik haqidagi yettinchi bobida o‘tmish va zamondosh shoirlarga ijodining asosiy yo‘nalishidan kelib chiqib, xolis ilmiy baho beradi va N.ga alohida firqa bag‘ishlagan. Bu haqda B.Rajabova “Bahoristonda Navoiy zikri” nomli maqola yozgan.

J.A.ning musiqa nazariyasi taraqqiyotida ham o‘ziga xos o‘rni bor. Uning musiqa haqidagi risolasi (“Risolayi musiqiy”) Sharq musiqasi tarixida muhim ahamiyatga ega. Musiqa masalalariga bag‘ishlangan “Naqshi Mullo” (“Naqshi Imoma”) asari ham mashhur. U musiqada Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino va Abdulqodir Marog‘iy an’analarini davom ettirgan va rivojlantirgan.

J.A. asarlari o‘z davri badiiy va ilmiy tafakkurining eng yuksak yutuqlari bo‘lgan edi. Shuning u-n N. J.A.ning she’riy va nasriy asarlari haqida “S.S.”da:

Ham nazming nasrdek kelib xo‘b,
Ham nasring nazmdek diloshub –

deb yozar ekan, bunda katta tarixiy haqiqat bor edi. N. “S.I.” dostonida J.A.ning g‘azallari va masnaviy asarlari, ya’ni dostonlari to‘g‘risida, ulardagi joziba haqida:

G‘azal dard-u so‘zini vah-vah ne dey!
Desa masnaviy, Alloh-alloh ne dey! –

der ekan, shu o‘rinda, ayniqsa, uning dostonlarini “o‘zga olam” deb xarakterlaydi:

Agar nazmdin borcha uslub anga,
Bori bir-biridin erur xo‘b anga,

Vale masnaviy o‘zga olamdurur,
Ki tab’ig‘a holo musallamdurur.

N. J.A. dostonlarining Nizomiy, Xusrav Dehlaviy “X.”lariga javob tarzida yuzaga kelganini ta’kidlab, “Ki sabt ayladi “Xamsa” o‘trusida” deydi. N. va J.A. o‘z “Xamsa”lari ustida deyarli bir vaqtda ish olib borgan bo‘lib, N. “X.”ning so‘nggi dostoni “S.I.”ni yozishga kirishganda, J.A. ham shu asarda qayd etilishicha, “Tuhfat ul-ahror”, “Yusuf va Zulayho”, “Layli va Majnun” dostonlarini tugallab, “Xiradnomayi Iskandariy”ni yoza boshlagan edi. N. bu xususda shunday deydi:

Bu damkim qilib xomasin durfishon,
Skandar hadisidin aytur nishon.

N. va J.A. “Xamsa”larini ko‘zdan kechirish shuni ko‘rsatadiki, bu dostonlarni yaratish jarayonida ular o‘zaro juda yaqin munosabatda bo‘lib, doim o‘zaro maslahatlashib, fikr almashib, bir-birlarini har jihatidan qo‘llab-quvvatlab, ruhlantirib turganlar. M-n, “S.S.”ni yaratish vaqtida N. holsizlanib, charchab qolganda unga tasalli berib, yangidan ijodiy kayfiyat hosil qila bilgan. N. o‘z “X.”sini tugallaganda ham birinchi J.A.ga ko‘rsatgan. J.A. esa bu asarga g‘oyat yuksak baho berib, “Xiradnomayi Iskandariy”da uni Nizomiy va Dehlaviy “Xamsa”lari b-n teng qo‘ygani ma’lum.

J.A. haqida N. birinchi marta “X.”ga kirgan dostonlarining har birining kirish qismida maxsus bobda qimmatli ma’lumotlar berdi va unga o‘z munosabatini bildirdi. Bu boblarning har biri ulug‘ ijodkor inson haqidagi madhiya bo‘lib, o‘z davrida hech kim J.A.ni bu darajada yuksak ulug‘lamagan. J.A. hayot vaqtida N. uning “Nafahot ul-uns” asarini o‘zbek tiliga tarjima qildi. N.ning J.A. haqida yozgan maxsus g‘azallari ham mavjud. Xuddi shuningdek, J.ham N.ning ajoyib sifatlari haqida “Haft avrang”ning “Layli

va Majnun”, “Yusuf va Zulayxo”, “Xiradnomayi Iskandariy” dostonlarida, “Bahoriston” kitobi va boshqa asarlarida ko‘pgina iliq satrlarni yozgan.

N. J.A.ni o‘z davrining buyuk allomasi sifatida ham hurmat qilar, uning shaxsini esa asrlarga namuna qilib ko‘rsatar edi. “S.S.”da bu haqda shunday misralar bor:

Ilmin oning tengizga qilsa xitob,
Mutlaq o‘lg‘ay demak tengizni sarob.

Ne kamolot aro nihoyat anga,
Ne marotibda g‘oyat anga.

Shu asarida N. J.A.ni filologiya sohasida Ibn Hojib, Jorulloh Zamaxshariylar b-n tenglashtirgan, hatto ulardan baland qo‘ygan. Xuddi shuningdek, N. J.A.ning tasavvuf borasidagi qarashlarini chuqur e’tiqod b-n qo‘llab-quvvatlagan, ularga ma’lum darajada izdoshlik qilgan.

J.A. vafoti (1492) N. u-n juda katta yo‘qotish bo‘ldi. N. sohibi a’zo sifatida uni dafn etish, marosimlarini o‘tkazish ishiga bosh-qosh bo‘ldi va bu hodisa munosabati b-n maxsus marsiya bitdi. Oradan ko‘p o‘tmay N. J.A.ning hayoti va ijodi, u b-n uchrashuvlari haqida “X.M.” nomi ostida maxsus kitob yozdi. Bu esa yana bir marta N. J.A. ning hayoti va ijodi faqat fors-tojik adabiyotigina emas, butun insoniyat u-n naqadar katta ahamiyatga ega ekanini chuqur anglaganidan dalolat qilar edi. J.A. va N. munosabatlari ancha chuqur o‘rganilgan bo‘lib, bunga Y.E.Bertels, P.Shamsiyev, A.Mirzoyev, A.O‘runboyev va boshqalar o‘z salmoqli hissalarini qo‘shganlar. J.A. va N. mavzusi adabiyotshunoslikning doimiy qiziqarli va muhim sohalaridan biri bo‘lib qoladi.

J.A. nomi asrlar davomida o‘zbek xalqi orasida ham mashhur bo‘lgan. N.dan tortib Zahiriddin Muhammad Bobur, Ubaydiy, Amiriy, Nodira, Uvaysiy, Munis, Ogahiy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy kabi barcha o‘zbek mumtoz shoirlari asarlarini mutolaa qilish, g‘azallariga muxammas bog‘lash, tatabbu’ yozish orqali undan mahorat sabog‘ini olganlar – she’riy balog‘at sirlarini o‘rganib kelganlar. Bobur “Boburnoma”da 7 ta qimmatli ma’lumot yozgan. Bu ma’lumotlar xususida B.Rajabova “Temuriylar Renessansi va Boburnoma” monografiyasida batafsil tahlil qilgan. Xususan, Buxoro, Samarqand, Xiva va Qo‘qon adabiy muhitlarida shoir asarlariga qiziqish kuchli bo‘lgan. “Bahoriston” pandnomasi va “Sharhi Mullo” (Jomiyning mashhur tilshunos olim Ibn Hojibning (vafoti – 1248) arab tili grammatikasiga bag‘ishlangan “Al-Qofiya” asariga yozgan sharhi shu nom b-n mashhur bo‘lgan. – E.O.) risolasi asrlar davomida madrasalarda o‘qitilgan. J.A. ijodidan biror-bir o‘zbek ijodkori xoli emas, deyish mumkin. Abu Rayhon O‘zR FA Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar xazinasida 46 nomdagi asarining 550 dan ziyod qo‘lyozma nusxalari saqlanishining o‘zi orifi Jom asarlarining o‘zbek xalqi orasida qanchalik keng tarqalganini yaqqol ko‘rsatib turibdi. Shundan 5 asar J.A.ning o‘z qo‘li b-n ko‘chirilgan.

Uning “Majmuayi murosalot” (“Maktublar majmuasi”)idagi 334 ta maktub ham o‘z qo‘li b-n yozilgan bo‘lib, ular N.ga yo‘llangan. Ma’lum bo‘ladiki, nafaqat fors-tojik, balki o‘zbek adabiyotining rivojida ham J.A.ning katta hissasi bor. N. yozishicha, u turkiy tilda she’r yozmasa ham, ammo bu tildagi asarlarni yaxshi tushunar va ular haqida o‘z fikrini ayta olar edi.

J.A. asarlari tarjimasini o‘z davrida N. boshlab bergan edi. U do‘sti va ustozining shayx-u avliyolar haqidagi “Nafahot ul-uns” tazkirasini “Nasoyim ul-muhabbat” (“Muhabbat shabbodalari”) nomi b-n o‘zbek tiliga o‘giradi. U tarjima jarayonida Farididdin Attorning “Tazkirat ul-avliyo”sidan “Nafahot ul-uns”da bo‘lmagan 19 ta “kibor mashoyix” zikrini qo‘shadi. Yana “Hind mashoyixi” haqidagi ma’lumotlar yetarli bo‘lmagani u-n qutb ul-avliyo Shayx Farid Shakarganjdan tortib to so‘nggi mashoyixgacha bo‘lgan 40 dan ortiq tarjimayi holni ilova qiladi. Ahmad Yassaviydan to o‘zining zamonigacha bo‘lgan turk mashoyixi “zikrlarin va ba’zi holotu so‘zlarin” imkon boricha topib, darj etadi. J.A. ning o‘zini ham kiritadi, 100 ga yaqin yetuk za-

mondoshlarini ham shunga loyiq topadi. Bugina emas. Asarni ancha-muncha tahrir qiladi, zamon ahlining uncha ehtiyoji bo‘lmagan 60 ta tarjimai holni qisqartiradi, ba’zi o‘rinlarni esa to‘ldiradi, 214 ta shayx hayoti haqidagi ma’lumotlarni qo‘shadi. Bu o‘zgarishlar natijasida “valoyat riyozi muhabbat shamimig‘a sabab” bo‘lgani u-n tarjimani “Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim ul-futuvvat” (“Ulug‘lik xushbo‘yliklarini taratuvchi muhabbat shabbodalari”) nomi b-n ziynatlaydi. Shu tariqa, “Nafahot ul-uns”da 616 ta shayx ul-mashoyix haqida ma’lumot berilgan bo‘lsa, “N.M.”da ular soni 770 taga yetadi. Shuningdek, “Chihil hadis” (“Qirq hadis”) asarini ham “Arba’in” nomi b-n tarjima qiladi. Keyinchalik – XIX asrda Ogahiy shoirning “Yusuf va Zulayho” hamda “Salomon va Absol” dostonlari va “Bahoriston” pandnomasini o‘zbekchalashtirgan. Uning hamyurti va zamondoshi Rahmonqul qori esa “Nafahot ul-uns”ni tarjima qilgan (1132 bet hajmida).

Ad.: *Алишер Навоий. Хамсат ул-мутаҳаййирин. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Абдураҳмон Жомий ва Алишер Навоий. – Т., 1966; Бертельс Е.Э. Навои и Джами. – М., 1965; Фахруддин Али Сафий. Рашаҳот. – Т., 2003; Айний С. Танланган илмий асарлар. – Т., 1978; Қаюмов А. Назм ва тафаккур қуёши. – Т., 1992; Абдураҳмон Жомийнинг ижод олами. – Т., 2014; Ҳайитметов А., Шомуҳамедов Ш. Жомий // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. – Т., 2002; Буюк сиймолар, алломалар. 2-китоб; Холмўминов Ж. Жомий ва ваҳдат ул-вужуд таълимоти. – Т., 2008; Шарафуддин Роқимий. Тарихи Томм. – Т., 1998; Рамазонов Н. “Насойим”нинг ўзига хос хусусиятларига доир // Навоийнинг ижод олами (Мақолалар тўплами). – Т., 2001.*

E.O.

JOMIY VAFOTIGA MARSIYA – N.ning Jomiy vafotiga bag‘ishlab, 1493-y.da yozgan marsiyasi “X.M.”da N. Jomiy vafotiga bir yil bo‘lganida uning qabri ustiga ulkan maqbara qurdirgani, juda ko‘p odamlar – shoh va saroy ahli, shoir-u olimlar ishtirokida katta marosim o‘tkazgani va ana shu ma’rakada J.V.M., vafotiga yozgan ta’rixini o‘sha davr nutq madaniyatining mashhur ustodlaridan bo‘lmish olim va shoir, tarjimon va notiq Husayn Voiz Koshifiy o‘qib beradi.

Har biri 10 baytdan iborat 7 bandli (140 misra) bu tarkibband marsiyada N. buyuk inson “fan olamining yagonasi” zabardast shoir, ulkan alloma, uning samimiy do‘sti, hamfikr va maslakdoshi, dil suyanchig‘i, piri-madadkoridan ayriliq dardlarini, alamli nolalarini yurak-yurakdan g‘oyat ta’sirli qilib ifodalab beradi. Jomiy vafoti N.ning o‘sha davrlardagi ahvoli ruhiyasini to‘laligicha ochib beruvchi asardir. Unda shuningdek, o‘zining botiniy e’tiqodiga mos tarzda g‘oyat kamtarona hayot kechirgan, nihoyatda xokisor tabiatli, saroy dabdabalarini, madh-u sanolarni xush ko‘rmagan Jomiyning, o‘z ijodida insonparvarlik g‘oyalarini ilgari surgan, ayni chog‘da diniy-e’tiqodiy g‘oyalarni ham targ‘ib qilgan murakkab dunyoqarashli shoir va mutafakkir siymosi o‘z ifodasini topgan. J.V.M.ning birinchi bandida – dunyo bir motamxona. Uning har tarafida nola-yu oh, har bir damda boshqa bir jafo boshqa bir balo yuz beradi. Shuning u-n ham dil ahllari poklik gulshani tomon intiladi. Jomiy ham haqiqiy vatanga yo‘l oldi, – deyiladi. Ikkinchi bandda Jomiy firoqida unga dildan mushtoqlar alamda, g‘amda qolgani, uchinchi bandda – Jomiy o‘limining islom u-n qanday yo‘qotish ekani, to‘rtinchi bandda – Jomiyni dafn etish marosimi, motam qatnashchilari chekkan g‘ussa haqida, beshinchi va oltinchi bandda Jomiyning pok ruhi ta’rif qilinib, olam yagonasi, eng shirinso‘z odam, xushxulq inson, Isonafas Xizr – Jomiy qani? Undan ayrilib qolganlarda to‘zim qani? – degan ma’noda va oxirgi, yettinchi bandda esa garchi inson qismati shunday ekan, uning

xotirasiga hurmat abadiy qoladi, uning ruhi madadkor bo‘ladi, – deya fikr yuritiladi.

Sadriddin Ayniy bu asar haqida “Alishernin Jomiy vafotiga tarkibbandi marsiya adabiyotining jon o‘rtovchi namunasidir... Bu tarkibbandda Jomiyning butun ilmiy va adabiy qudrati mujassamlashgandir”, – deb yozadi. Bu asarda yaqin do‘sti, maslakdosh murabbiysidan, ijodkor hamkasbidan judo bo‘lgan N.ning qalb og‘riqlari, Jomiyga bo‘lgan yuksak hurmati va e’tiqodi ham o‘z aksini topgan.

Ad.: *Ўзбек адабиёти тарихи. – Т., 1978.*

A.A., E.O.

JOMIY HOFIZ ALI – N. J.H.A.ning huzurida qiroat ilmidan dars olgan. U o‘z zamonasining sohibi kamol tasavvuf va irfoniy ilm sohibi, hofizi Qur’on va ustozi qurro, mufassir va tajviddan (Qur’onning o‘qish uslubi) dars o‘tishda unga hech kim tenglasha olmagan, hatto ba’zi hofizi Qur’onlar ul zotning shogirdi ekanidan faxrlanib yurgan. N.ning o‘zi ham J.H.A.ni ustoz, deb zikr etgan: “Darvesh Mansur – sabzavorlig‘dur... tasavvuf ilmida Jomiy Hofiz Ali shogirdi erdikim, aning ta’rifida aql qosirdur...”

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Торихи адабиёти Эрон. 3-жилд. – Теҳрон.*

S.G‘., S.O‘.

JOMIY MAQBARASI – Hirotdagi XV asrga mansub me’moriy yodgorlik. N. farmoniga ko‘ra bunyod etilgan. Maqbara Hirotning shimoli-sharqida, Xiyobon hududida, Musallo va Bog‘i Zog‘on kabi tarixiy binolar qavatida, Mashhad – Hirot – Kushka yo‘lidan taxminan 100-120 metr g‘arbroqda, Injil daryosining quyi sohilida joylashgan. U ikki hovlidan iborat bo‘lib, birinchisi ziyoratchilar dam oladigan va istiqomat qiladigan ko‘kalamzor bog‘, ikkinchisi J.M. o‘rin olgan masjid-madrasa.

Madrasa oddiy, lekin go‘zal tarh-u shaklda qurilgan. Peshtoqli muhtasham ayvon va gullar yodgorlikka alohida ko‘rk bag‘ishlab turadi. Ayvon peshtoqining ikki tomonida ikki oshyonli hujralar o‘rin olgan – maqbara kabi ular ham koshinlar b-n ziynatlangan. Asosiy sahnning 2 burchagida darsxonalar mavjud. Maqbaraning 2 burchida 25 metr balandlikdagi 2 burj ko‘zga tashlanadi. Hovli sahniga tosh yotqizilgan. Maqbarada Jomiydan tashqari uning qaynotasi Sa’duddin Koshg‘ariy, shogirdi Abdulg‘afur Loriy, jiyani Abdulloh Hotifiy va boshqalar qo‘yilgan.

Ismoil Safaviy Hirotni istilo qilganida, J.M. ga o‘t qo‘ygan. Ma’lumki, Husayn Boyqaro Hirot taxtiga o‘tirganida ba’zilarning maslahati b-n xutbaga shialarning 12 imomi nomini ham qo‘shib o‘qitmoqchi bo‘lgan, lekin Jomiy boshliq zamona ulug‘lari uni bu niyatidan qaytargan edilar. Shuning u-n Ismoil Hirotni olsam, J.M.ning kulini ko‘kka sovuraman deb qasam ichgan edi. Bundan xabar topgan Jomiyning o‘g‘li Ziyovuddin Yusuf va shoir muxlislari uning jasadini vaqtincha boshqa yerga ko‘chiradilar. Afg‘on shohi Ahmadshoh Durroniy J.M.ni pishiq g‘ishtdan qayta quradi, unga ayvon yasaydi (1721–1722). Keyinchalik yillar shamolida xarob bo‘lgan maqbarani Hirotga kelib qolgan Amir Habibulloh yangidan ta’mirlatadi (1918–1919). J.M.sini marmartoshdan panjara b-n o‘rab oladi. Qabr atrofi va maqbara sahnini g‘isht va mayda toshlar b-n bezaydi.

Ad.: *Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1989.*

E.O.

JOMOSP (Jomosb) – Sharq tarixiy, ilmiy va badiiy adabiyotida Arastu, Aflotun, Fisog‘urslar qatorida tilga olinuvchi yunon donishmandlaridan biri. N. “T.A.H.” asarining “Hukamo zikri” bo‘limida J.ga maxsus to‘xtalib, uni “Luqmonning shogirdi erdi”, deb ko‘rsatadi, ayniqsa, astronomiyaga oid “g‘arib ahkomi” tadqiqoti-bashoratnomasi borligini ta’kidlaydi. Shuningdek, mazkur asarida N. J.ni Eronda hukmronlik qilgan

kayoniylar sulolasidan Gushtasp shohligi davridagi donishmandlar jumlasida tilga olib, “zamonining saromadi erdi”, – deb yozadi.

An’anaga ko‘ra, N. J.ning bashorat qilish qobiliyati haqida so‘zlab, “O‘z zamonidin so‘ngra uch ming yilg‘acha kelur ishlarni hukm qilibtur” deb Jomospning hikmatlaridan namuna sifatida, karim (karam-saxovatli, oliyjanob shaxs – A.A.) ning yomonroq xislati o‘z ilmining (bu o‘rinda, fazilati, odati ma’nosida – A.A.) tarki va laim (xasis, past kishining yaxshiroq xislati o‘z ilmining (fazilati, odati – A.A.) tarki hikmatini keltiradi.

N. qator badiiy asarlarida ham bu obrazga murojaat etib, ezgulikka xizmat qiluvchi, ijobiy qahramonlarga madadkor kuch sifatida talqin qiladi. “F.Sh.” dostonida hakim Suhaylo “Jomosp yozmish ahkomi”da o‘zidan “ming yil keyin Chin kishvarida Farhodning” dunyoga kelishi, ajdar va dev ahramanlarni yengib Iskandar tilsimini ochishi, Yunonda Suqrot bilan uchrashib, undan yo‘llanma-maslahatlar olishi, Ching‘a qaytib ko‘zguda o‘z taqdirini ko‘rishi haqida ma’lumotlar bitilganini hikoya qiladi.

Manga Jomospdin erdi bu e’lom,
O‘zidin so‘ngki yozmish erdi ahkom –

Ki, mendin so‘ngra garduni sabukpay
Chu ming yil aylasa, yer davrasin tay.

Chiqib shahzodaye Chin kishvaridin,
Kelib Yunong‘a davlat rahbaridin,

Oti Farhod-u har donishda mohir,
Saodat farri ruxsorinda zohir,

Tutub ranj-u anog‘a jon-u jismin,
Ochar Iskandari Rumiy tilismin.

“S.I.” dostonida esa Aflotun J.ning oldindan bitib qoldirgan yozmishlari bo‘yicha zolim Mallu jodusini ochadi, el-u yurtga shamol va o‘t-olovni qaytarib, hayot baxsh etadi, Iskandarni og‘ir ahvoldan qutqaradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

Q.E.

“JOMOSPNOMA” – dono Jomospning Eronning kelajagi haqidagi bashoratlari va shoh Vistapga bergan javoblarini o‘z ichiga olgan kitob. U qadimiy pahlaviy tilida yozilgan bo‘lib, qariyb 5 ming so‘zdan iborat. Bashorat va hikmat kitobi, ta’birnoma va pandnoma sifatida mashhur bo‘lgan. N. “S.S.” dostoni 25-bobida uchinchi iqlim yo‘lidan kelgan musofir afsonaviy qahramoni misrlik boyning o‘g‘li Sa’dning ko‘rgan tushini Luqmoni Hakimning shogirdi Paylaqus “J”. vositasida ta’bir qiladi.

Dedi: “Jomospnoma” arqomin,
Nazar aylab, o‘qug‘il ahkomin –
Kim, yozibdur bu qissani bir-bir –
Ki, tushungga ne nav’dur ta’bir.

Bu kitob “S.I.” dostonida ham tilga olinadi. Iskandar Kashmirga yurish qilganida uning shohi Mallu tilsimlangan qo‘rg‘onda o‘t b-n shamolni yashirib qo‘yadi. Iqlim aynib, odamlar ovqat pishirolmay qoladilar. Shunda Aflotun Jomosp kitobida bu masalaning yechimini o‘qiganim bor deb, o‘sha asosda muammoni bartaraf etadi.

O‘qub erdi Jomosp ahkomida,
Bu so‘zniki, Iskandar ayyomida...

Ad.: *Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

Q.E.

JON – bu imtihon dunyosida insonning tirikligini ta’minlovchi quvvat, Allohning omonati. Zero, Qur’oni Karimda “Har bir jon o‘limni totguvchidir” (“Oli Imron” surasi, 183-oyat), “Har

bir jon o‘lim (sharbati)ni totguvchidir. So‘ngra O‘zimizga qaytarilursizlar” (“Ankabut” surasi, 57-oyat), – deyiladi. Irfoniy adabiyotda Allohning “Men o‘z ruhimdan pufladim” degan ilohiy nafas, ruh ma’nolarida ham keladi. Mumtoz adabiyotda, jumladan, N. ijodida J. Jononga talpinadi va u yorga tuhfa, ishqullohlar u-n zakotdir. “N.M.”da o‘qiymiz: “Abubakr Mavoziniy (q.s.) debdurki, Ibn Xabbozdin eshittimki, dedikim, azho iydida Jamra yaqinida erdim. Bir darvesh ko‘rdum, turub erdi va iligida bir ko‘za yo rikva. Va der erdikim, “Ey Egam, odamlar qurbonliklari va sadaqalari bilan senga yaqinlashadilar. Menda jonimdan boshqa hech narsa yo‘q”. Keyin u na’ra tortdi va jon berdi”.

Lirik merosida ham jon ishqda o‘rtanguvchi va jononaga qurbonlik ma’nolarida keladi:

Bor anga ishq ichra jon bermak murod,
Ishq qaydidindurur barcha kushod.

Ad.: *Қуръони Карим. Ўзбекча изоҳли таржима // Таржима ва изоҳлар муаллифи Абдулазиз Мансур. – Т., 2001; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005. Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. – Душанбе, 1987.*

Z.R.

JON QUSHI – inson tirikligi va ruhning barhayotligini aks ettiradigan bir timsol. Dastlab qadim yunon faylasuflari, jumladan, Aflotun va Platon ruhning qanotlaridan bahs yuritgan. Afsonaviy, mifologik va eski diniy matnlarda esa ruh, ya’ni jon kaptar, burgut, yashil qush suratida tasvirlangan. Ruh, jon, ko‘ngil va nafsdagi o‘zgarish, yangilanish hamda ilohiy yuksalishlar mumtoz Sharq adabiyotida Ibn Sino, Imom G‘azzoliy, Sanoiy, Attor, Mavlono Rumiy kabi ijodkorlar tomonidan qush timsoli orqali mahorat b-n tasvirlangan. N. she’rlarida jon qushi timsoliga ko‘p marotaba murojaat etilgan:

O‘qung ko‘p zaxmidin dom o‘ldi jismim,
zaxmlar ermas,
Chiqarg‘a jon qushi yo‘llar yasabtur
har taraf domim.

Yoki:

La’li jonbaxshing sari mayl ettilar jonlar qushi,
Ul chibinlardin amon istar esang, shakkarni yop.

“L.T.” dostoni esa mana bunday so‘zlar b-n boshlangan:

Jon qushi chun mantiqi roz aylagay,
Tangri hamdi birla og‘oz aylagay.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

Z.R.

JORO‘BKASH – 1. masjid, madrasa, xonaqoh va mozorlar hamda ko‘chalarni supuruvchilar, xizmatkorlar. 2. Ma’joziy ma’noda esa muallifning niyati, hurmati, ixlosi va e’tiqodining izhori va savobga yo‘g‘rilgan amaliy ishlarining oqibati. N. asarlari matnida J. har ikki ma’noda ham qo‘llangan. Ayniqsa, Abdulla Ansoriy va Amir Qosim Anvor singari shayx va shoirlar haqidagi ma’lumotlarda bu haqda u ixlos va faxr b-n batafsil ochiqlashga harakat qilgan. N. “M.N.” tazkirasida bitgan “Hazrati Amir Qosim Anvor” fiqrasida o‘zining bu ulug‘ shayx va shoirga bo‘lgan ixlosi, cheksiz hurmatini shu so‘z b-n quyidagicha talqin qilgan: “Va ul hazratning muborak marqadi Jom viloyatida Xarjurd qasabasidadur. Va faqir (N.) ham ul ostona joro‘bkashlaridinmen”.

N. davri tarixiy manbalarida shayx ul-islom Abdulla Ansoriy xonaqosi ostonasining J.i bo‘lishni Sulton Husayn Boyqarodan iltimos qilgani va bu to‘g‘risida Sultonning nishon (yorlig‘) chiqargani b-n bog‘liq ma’lumotlar bitib qoldirilgan. Biz bu o‘rinda mumtoz muarrix Xondamirning “Xulosat ul-axbor” asarining “Hirot

shahrining tashqari qismidagi muo‘tabar joylarning qaydi” deb nomlanuvchi faslida yozilgan qimmatli ma’lumotni ilova qilishni maqsadga muvofiq deb bildik: Chunonchi: “Tangrining yaqin do‘sti Xoja Abdulla Ansoriyning fayz asarlik mozoriga qurilgan xonaqoh.

Sharofatli va chiroyli manzil, ob-havosi jannat nasimi to‘g‘ri ko‘ngul ochuvchi, suvi jannat bulog‘ining suviday tozadir. Ushbu muborak joyda xos-u avom to‘g‘ri hamma vaqt turli-tuman taomlar muhayyo... 964 (1498–1499) yili oliyjanob Sulton hazratlarining yaqin do‘sti ul joyning joro‘bkashlig‘i mansabini ixtiyor qilgan vaqtda Ixlosiya madrasasida o‘qigan va kasabussabaqda zamondoshlaridan o‘tib ketgan fazilat egasi janobi Mavlono Shamsuddin Muhammad ushbu xonaqohga mudarris va bir necha xushovoz hofizni o‘sha fayzli manzilda Qur’on tilovat qilib turishga tayin qildilar, yana muazzin ham tayinlandi...” Ko‘rinadiki, shavkatli amir N. ko‘ngil sultoni shayx Abdulla Ansoriyning qabri ustiga xonaqoh qurdirgani va atorofini obod qilishi hamda vaqflar ajratishi b-n bog‘liq xayrli ishlariga ham ishoralar qilingan.

Ad: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий асарлари луғати. – Т., 1972; Навоий замондошлари хотрасида. – Т., 1985.*

B.R.

JORULLOH (ar. – Allohning qo‘shnisi). Mahmud az-Zamaxshariyning (1075–1144, Xorazm) laqabi. Uning to‘liq ismi Abul-Qosim Mahmud ibn Umar ibn Muhammad bo‘lgan. Ulug‘ alloma Xorazm zaminida tavallud topib, o‘zining o‘lmas asarlari b-n jahon ilm-u faniga munosib hissa qo‘shdi. Yoshlikda, qahraton qishda Zamaxshariy ilm izlab, Buxoroyi sharifga yo‘l olayotgan bir payti, baxtsiz hodisa tufayli otdan yiqilib oyog‘i qattiq lat yeydi. Natijada tabiblar oyog‘ini kesishadi va bir umr yog‘och oyoqda nogiron bo‘lib qoladi. Lekin nogironligiga qaramay tirishqoq va o‘ta qobiliyatli bo‘lgani u-n bir umr ilm olishdan tinib-tinchimadi. Manbalarda aytilishicha, u Xuroson, Shom, Iroq va Hijoz mamlakatlarida bo‘ldi. Ayniqsa, besh yil Makkayi mukarramada juda samarali umr o‘tkazdi. O‘sha davrdagi Makka voliysi va Makka xalqi unga juda katta hurmat ko‘rsatishdi. Unga boshqa biror allomaga nasib etmagan yuksak maqom – Jorulloh (“Allohning qo‘shnisi”) degan laqab berildi.

Yetuk olim va iqtidorli shoir bo‘lgan Makka amiri Ibn Vahhos Zamaxshariy b-n doim aloqa qilib turar va undan ko‘p narsa o‘rganardi. Zamaxshariy ilm olamida tilshunoslik, lug‘atshunoslik, adabiyot, aruz, odob-axloq, mantiq, jug‘rofiya, tafsir, hadis, fiqh va qiroat ilmiga oid alohida nufuzga ega bo‘lgan oltmishdan ortiq asarlar yozdi. Ularning aksariyati bizgacha yetib kelgan. M-n, uning “Kashshof” tafsiri, hadis ilmiga oid “Al-foiq fi g‘arib al-hadis” (“G‘arib hadislar haqida ajoyib asar”), arab tili grammatikasiga oid“ “Al-Mufassal fin-nahv”, va’z va xutbalar haqida “Atvoq uz-zahab fil-mavoiz val-xutab” (“Va’zlar va xutbalar bayonida oltin shodalar”), adabiyot, tarix va boshqa fanlarga oid hikotlar va suhbatlardan iborat “Rabiy’ al-abror va nusus al-axyor” (“Ezgular bahori va yaxshilar izhori”), jug‘rofiyaga oid “Kitob al-jibol val-amkina val-miyoh” (“Tog‘lar, joylar va suvlar haqida kitob”) kabi bezavol asarlari butun Sharq mamlakatlarida dovruq yoyib, tadqiq va tahlil qilinmoqda.

Az-Zamaxshariyning buyuk dahosi va o‘lmas asarlari o‘z davrida ham keyingi davrlarda ham ahli ilm-u adab tarafidan e’tirof etildi. Uni hech kimga nasib etmagan: “Ustoz ad-dunya” (“Butun dunyoning ustozi”), “Ustoz al-arab val-ajam” (“Arab va ajamning ustozi”), “Jorulloh” (“Allohning qo‘shnisi”) kabi laqablar bilan tilga olishgan. U bir o‘rinda haqli ravishda: “Chindan ham men Xorazm adiblari uchun Ka’badekdurman”, deb aytgan edi.

N. Zamaxshariy asarlaridan yaxshi xabardor bo‘lgan. U “M.Q.” asarida allomaning laqabini va dunyoga mashhur “Kashshof” tafsirini tilga oladi: “Karih zot o‘zin Yusufi Kan’oniy degay va “ankar al-asvot” unin Yusufi Andijoniy alhoni.

Nomavzun abyotin Salmonning “Masnu’” qasidasidin yaxshiroq bilgay va bema’ni hazayonin Jorulloh bitgan “Kashshof” gumon qilg‘ay”.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Буюк юрт алломалари. – Т., 2016.*

S.R.

JUD – jo‘mardlik, saxiylik, mutlaq xayr-ehson sohibi bo‘lmoq. Qushayriyning yozishicha, so‘fiylarning nuqtayi nazarida jo‘mardlikning ilk darajasi – saxo; ikkinchisi – jud; uchinchisi – isor. M-n, mol-davlatidan bir qismini o‘zida saqlagan – saxovat sohibi, ko‘pini berib, ozini olib qolgan – jud sohibi, tirikchilik u-n zaruridan boshqasini xayrli ishlarga sarflagan – isor sohibi hisoblangan. Tasavvuf ahli u-n jud b-n saxo o‘rtasida farq yo‘qdir. Jud va saxoda Ibrohim Xalilulloh va Muhammad Habibullohning hollarini N. ham ibrat va o‘rnak qilib ko‘rsatgan.

Naql etilishicha, Ibrohim (a.s.) payg‘ambar uyiga mehmon kelmaguncha, ovqat yemas ekan. Bir gal uch kungacha mehmon kelmabdi. So‘ngra ittifoqo eshik oldida bir majusiy (otashparast) paydo bo‘libdi. “Sen kimsan?” deb so‘rabdi hazrati Ibrohim. “Men bir majusiyman”, – debdi u. “Sen mening hurmatimga ham, mehmonim bo‘lishga ham loyiq emassan, yo‘lingdan qolma”, debdi Xalilulloh unga. Majusiy yo‘liga ravona bo‘libdi. Biroq oradan hech fursat o‘tmay, Alloh taolodan do‘stiga “Ey, Ibrohim, yetmish yil yedirib-ichirganim bir kimsaga bir burda non bermak senga og‘irlik qildimi?” degan xabar yetibdi. Uni eshitgan hamono Ibrohim (a.s.) payg‘ambar majusiyning izidan borib, uni olib kelib mehmon qilibdi. Munosabatdagi bunday o‘zgarishdan majusiy juda hayron qolib, sababini mehmondan so‘rab bilgach, hayajon b-n: “Alloh – naqadar olijanob, naqadar hurmatli! Dushmani uchun do‘stiga ozor yetkazar”, deya musulmonlikni qabul etgan ekan.

Kim bo‘lishidan qat’iy nazar, hech ikkilanmasdan va hech qiynalmasdan himmat va saxovat ko‘rsatish – judning tamal haqiqatidir.

Mavrusiy qul jinsi baniy Odam anga,
Meros ila mulk jumlayi olam anga,
Hayron karam-u jud ishida Hotam anga,
No‘shirvon adl ichinda tobi’ ham anga.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

Z.R.

JUZ va KULL (ar.) – Juz – parcha, bo‘lak, qism, boshqa, kull esa butun, hamma, jam’i, shuningdek, har bir ma’nolarida keladi. J. K.ning qismidir. M-n, Qur’oni Karim butun desak, oyatlar uning juzidir. Yoxud daraxt kull, shoxlar, barglar juzdir. K.da nimaiki mavjud bo‘lsa, J.da ham bor. J. ajralgani b-n K.ning mohiyatida o‘zgarish bo‘lmaydi. J.da K. namoyon bo‘ladi. Ammo juz kull bo‘lolmadi. “F.Sh.” dostonining 3-bobida N. “Qayyumi Mutlaq sifoti”ni vasf etarkan shunday deydi:

Taolallo, ne Hayyu Qodiri pok,
Ki, Aqli Kull anga deb: “Mo arafnok”.

Sifoti aql shaxsig‘a solib rech,
Chu zotin fikr etib topib o‘zin hech.

Qilib chun barq zotin mazhari kul,
Jahoni aql xoshoki bo‘lub kul.

J.K. istilohi va borliqni butun va bo‘lakka ajratish falsafasi ilk bor Ya’qub bin Is’hoq al-Kindiy tomonidan o‘rtaga tashlangan. Haq taolo o‘zining kulliy sifatlaridan insonga omonat bergan. Bandasiga juz’iy sifatlarning berilishi Haq taoloning azimatiga ishora bo‘lib, J.ning in’om etilishi K.ning mazmun-mohiyatiga hech qanday ta’sir qilmaydi. Tasavvufiy asarlarda ham bu irfoniy tushuncha o‘laroq izohlangan. Jumladan, N. “L.T.” dostoni Ma’rifat vodiysi ta’rifida:

Vodiyedur yuz tuman ming onda yo‘l,
Ul bu bir kelmay, oningdekkim bu ul.

Ixtilofi juzv ila kul mundadur,
Kim taraqqi-yu tanazzul mundadur, -

deyiladi. Ko‘rinib turibdiki, J.K., xususiylik va umumiylik mohiyatini anglashda ma’rifat zarurdir. Chunki ma’rifat Borliqning Haqqa va Haqning Borliqqa munosabatini tushuna olishdir. Ma’rifat bosqichi insonga Haqqa yetishni, bilishni va amal qilishni o‘rgatadi. “S.I.”da o‘qiymiz:

Murattab chu bo‘ldi bitiklar bori,
Uzotti alar har birin bir sori.

Chu bo‘ldi ravon har taraf ul rusul,
Qilurda, demakta bilib juzv-u kul.

Qayu birki har sori azm ettilar,
Chu oz vaqt yo‘l kettilar yettilar.

Butun borliqning mohiyati J.K. munosabati orqali tushuniladi. Mutlaq borliqning tajalliysi juzdir. N. ham mutasavvif shoir o‘laroq J.K.ning rishtalaridan bahs etadi:

Anbiyo sarxayli sultoni rusul,
Kim erur oning tufayli juzvi kul.

Dunyoning yaratilishi Muhammad (s.a.v.) ekanini ta’kidlagan N. Rasulullоh (s.a.v.) va olam, Alloh taolo va olam munosabati teran hamda aniq ifodasida J.K. istilohidan foydalanadi. Lirik merosida ham bu so‘zlarni ko‘p istifoda etadi. M-n:

Kulli-yu juzviy yo‘q-u borim sanga
bo‘ldi fido,
Sen kerak bo‘lsang, manga yo‘q
emdi juz-vu kul havas.

Bu kalimalar alohida ham qo‘llaniladi. Ayniqsa, juz “boshqa” ma’nosida ham keladi:

Juz vasl sharbati manga sud etmas, ey tabib,
Kim men firoq mehnatidin dardnokmen.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

Z.R.

JUMAXO‘JA Nusratullo (1953, Buxoro) – adabiyotshunos, matnshunos, tilshunos, f.f.d-ri, prof. U O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, Xalqaro Ahmad Yassaviy mukofoti sovrindori, “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi a’lochisi”, “Birinchi darajali mehnat faxriysi” ko‘krak nishoni sohibi. J.N. 20 dan ortiq fundamental tadqiqot va 500 dan ziyod ilmiy, tanqidiy, ilmiy-ommabop maqolalar muallifi. Adabiyot tarixining o‘ziga xos nozik jihatlarini o‘rgangan olimning Navoiy, Munis, Ogahiy, Turdi, Feruz, Huvaydo singari o‘zbek mumtoz adabiyoti namoyandalari ijodini tadqiq etishga bag‘ishlangan asarlari ko‘pchilikka yaxshi ma’lum. U o‘rta maktabning 10-sinfi uchun “O‘zbek adabiyoti” darsligi va majmuasini yaratdi. F.f. d-ri I.Adizova b-n hammualliflikda o‘zbek filologiyasi hamda o‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish yo‘nalishidagi talabalarga mo‘ljallangan “O‘zbek adabiyoti tarixi (XVI–XIX asr I yarmi)” darsligi, shuningdek, “Poetik tasvirda peyzajning roli”, “Munis g‘azaliyoti”, “Turdi nazmi badiiyati”, “Feruz madaniyat va san’at homiysi”, “Feruz. Shoh va shoir qismati”, “Huvaydo merosining ma’naviy-ma’rifiy mohiyati”, Muhammad Yusuf Bayoniy hayoti va ijodini yoritishga bag‘ishlangan, I.Adizova b-n hammualliflikda yozilgan “So‘zdin baqoliroq yodgor yo‘qdur” kabi tadqiqot kitoblarini chop ettirdi.

J.N. n.shunoslik sohasida mahsuldor tadqiqotchilardan biridir. Uning “Satrlar silsilasidagi sehr (Alisher Navoiy g‘azallari tahlili asosida)” nomli risolasi mamlakatimizda N. g‘azallarini

keng kitobxonlar ommasi u-n ilmiy-ommabop uslubda sharhlash yo‘nalishining shakllanishida muhim omil bo‘ldi.

N. tavalludining 575 yilligi munosabati b-n J.N. ulug‘ mutafakkir g‘azallarining mashhur olim va shoirlar tomonidan amalga oshirilgan eng sara tahlillarini to‘plab, “Navoiy g‘azaliyoti talqinlari” nomi b-n chop ettirdi.

Olimning mumtoz adabiyotni teran tushunishi, mumtoz adabiyotimizda o‘z aksini topgan diniy-falsafiy, tasavvufiy-irfoniy g‘oyalardan yaxshi xabardorligi, ayniqsa, “Qaro ko‘zum...” g‘azali tadqiqi” nomli monografiyasida o‘z aksini topgan. Shungacha bir g‘azal haqida bir kitob yaratilmagan edi. Bir g‘azal to‘g‘risida 300 betlik butun boshli bir kitob yozish mumkinligi tasavvurga ham sig‘masdi. Muallif “Qaro ko‘zum...” g‘azalining 45 yil mobaynida o‘nlab atoqli olimlar va shoirlar tomonidan o‘rganilishini, bu boradagi bahs-u munozaralarni kuzatgan, tahlil (analiz)larni sintez qilgan va g‘azal tadqiqi tarixini to‘lig‘icha kitobida mujassam etgan. U 2015-y. Ustoz A.Hayitmetov qalamiga mansub “Navoiy lirikasi” monografiyasini katta hajmli so‘zboshi b-n qaytadan nashrga tayyorlab, kitobxonlar hukmiga havola etdi.

Ad.: *Жумахўжа Н. Сатрлар силсиласидаги сеҳр (Алишер Навоий ғазаллари таҳлили асосида). – Т., 1996.; Жумахўжа Н. Навоий ғазалиёти талқинлари. – Т., 2018.; Жумахўжа Н. “Қаро кўзум...” ғазали тадқиқи. – Т., 2021.*

S.O‘.

JUNUN – telbalik, aqldan begonalik. Ilohiy ishqda sarmastlik holi. Hamma narsani unutib, faqat Haq diydorini istash.

Bul ajab hol ila bilmonki junun dashti aro,
Meni majnung‘amu yo ani manga o‘xshatting.

Tasavvufda Haq oshiqlarining holi sifatida qaraladi. N. o‘z asarlarining bir lirik qahramoni sifatida keltiradi:

Navoiy istamas el ishqin anglag‘ay, bukim
O‘z-o‘zi birla junun ahlidek maqolati bor.
Ne ajab Farhod-u Majnun zikrikim, bo‘lmish unut,
Kim men el ichra junun-u ishq ila mazkurmen.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Жилд 1. – Т., 1983.*

Z.R.

“JUNUN VODIYSIG‘A MOYIL...” – N. ning “G‘.S.” devoniga kiritilgan g‘azal:

Junun vodiysig‘a moyil ko‘rarmen joni zorimni,
Tilarmen bir yo‘li buzmoq buzilg‘an ro‘zgorimni.

Falak bedodidin garchi meni xokiy g‘ubor o‘ldum,
Tilarmen topmag‘aylar to‘tiyolig‘qa g‘uborimni.

Shak ermas partave tushkach uyi ham,
raxti ham kuymak,
Chu go‘riston gadoyi sermagay sham’i
mazorimni.
Demang qay sori azm etkung,
manga yo‘q ixtiyor, oxir
Qazo ilgiga bermishmen inoni ixtiyorimni.

Tugandi ashki gulgun, emdi qolmish
za’faroniy yuz,
Falak zulmi badal qildi xazon birla bahorimni.

Diyorim ahli birla yordin boshimg‘a yuz mehnat,
Ne tong boshim olib ketsam qo‘yub yor-u
diyorimni.
Yomon holimg‘a bag‘ri og‘rig‘ay
har kimsakim, ko‘rgay
Bag‘ir pargolasidin qong‘a
bulg‘ang‘an uzorimni.

Hayotim bodasidin sargaronmen asr-u, ey soqiy,
Qadahqa zahri qotil quy, dag‘i daf’ et xumorimni.

Jahon tarkin qilmay chunki tinmoq
mumkin ermastur,
Navoiy, qil meni ozod o‘rtab yo‘q-u borimni.

Bu g‘azalda shoir o‘zining sevimli qahramoni Majnunga izdosh. Chunki “g‘avg‘oyi junung‘a mubtalo” Majnun “Hushumni junun yeli sovurdi”, deya e’tirof qilgan. Gap shundaki, g‘azaldagi lirik “men”ning aqli hushi hali “junun yeli”dan butunlay sovrilmagan. Unda hozircha “junun vodiysig‘a” mayl paydo bo‘lgan. Uning “Junun vodiysig‘a moyil ko‘rarmen joni zorimni”, degan so‘zlarini tinglab, moyillik sababini ham darhol anglaymiz. Demak, bu – jonning zoriqishidan tug‘ilgan istakdir. Ikkinchi satr zorlik shiddatiga toqat qila olmaslik darajasiga yetgan oshiqning tilagini ifodalaydi:

Tilarmen bir yo‘li buzmoq buzilg‘an ro‘zgorimni.

Buzilganni yana buzmoqdan ne samara? “Buzilg‘on ro‘zgor”ni bir yo‘li tuzmoq mumkin emasmi? Yo‘q, junun ma’rifati bunga o‘rgatmaydi.

“Junun – mastlikda nihoyat, darvishlikda bidoyat erur. Junun shunday ogohlikdurki, unda kishi o‘zligidan bexabar bo‘lmog‘i kerak”, deydi Sayyid Ja’far Sajjodiy. Junun – tasavvufda vahdat mayidan mastlikning nihoyati. N. nazarda tutgan “junun vodiysi”, bizningcha, darveshlikka daxldordir. Chunki g‘azalning birinchi baytida o‘zlikdan kechmoq niyati ta’kidlangan, xolos.

Falak bedodidin garchi meni xokiy g‘ubor o‘ldum,
Tilarmen topmag‘aylar to‘tiyolig‘qa g‘uborimni.

Bu misralarni shoir Erkin Vohidov bunday sharhlaydi: “Ya’ni, zolim odamlar meni tirikligimda xo‘rladilar, qadrimga yetmadilar. Vaqt kelarki, mening odamlarga ko‘rgazgan mehr-u sadoqatim, fidoyiligim ayon bo‘lar. Kishilar mening qadrimga yetarlar, mozorim xokini ko‘zlariga to‘tiyo qilarlar. Lekin tirikligimda bedodlik qilganlar men dunyodan o‘tgach o‘kinmoqlari benaf, ko‘zlariga to‘tiyo qilmoq uchun g‘uborimni topmag‘aylar”. “Falak bedodidin” shikoyat, albatta, shunday mulohazalarni ilgari surishga imkon beradi. Ammo bu fikrlar baytning zohiriy mazmuniga tegishli bo‘lishi mumkin. Uning haqiqiy ma’nosi esa boshqachadir.

Falakning zulm-u adolatsizligidan jismi xoki g‘uborga aylangan shoir, “Tilarmen, topmag‘aylar to‘tiyolig‘qa g‘uborimni”, deydi. Bu gaplar kimga qaratilgan? Eng avvalo, ishq ahliga.

Abul Hasan Xaraqoniy “Nur al-ulum”da ishq tufayli g‘oyib o‘lmoqni uchga ajratadi: avvalgisi, o‘zingni anglasang, Xudo ham seni bilsa va kishilarni siyrak ko‘rsang. Ikkinchisi – sen bo‘lsangu, ma’shuq bo‘lsa. Uchinchisi – hamma bo‘lsa-yu, sen bo‘lmasang.

N.ning navbatdagi tilagi shu so‘nggi g‘oyiblik, ya’ni vahdati vujud b-n tamoman birlashmoqdir. Turk olimi Ibrohim Chubukchi yozadi: “Vahdati vujud nazariyasining asoschisi Ibn Arabiydur. Unga ko‘ra borliqda Allohdan o‘zga hech narsa yo‘qdir... so‘ngsiz shakllarda tajalliy etadigan yoki ko‘rinadigan yagona haqiqat – Alloh bor. Bu Haqiqatni maydonga keltirgan yoxud yaratgan biror sabab bo‘lmaganidek, uning aksidan boshqa zuhurlanmish narsa ham yo‘q”. Tasavvufda ilohiy jamol timsoli – Nur. Agar Xudo o‘z aksini ko‘rsatsa – olam nur va yorug‘likka chulg‘anadi. N. bu Nurning olamshumul qudratini ulug‘lab deydi:

Shak ermas partave tushgach uyi ham,
raxti ham kuymak,
Chu go‘riston gadoyi sezmagay
sham’i mazorimni.

“Sham’i mazor” – jahondagi barcha narsani o‘tga g‘arq etuvchi samoviy porloqlikka nisbatan kichik bir yorug‘lik ramzi. Biroq, inson ruhi “sham”ga qiyoslanadigan bo‘lsa, uning shu’lasi Haq nuriga singib ketishga qodir. “Go‘riston gadoyi” – umumlashma obraz. Shoir unda inoni ixtiyorini “qazo ilkiga” topshirish sirlaridan bexabar g‘ofillarga munosabatini izhor qilgan. U dashti fanoga ravona bo‘lishni ko‘zlagani uchun ham ix-

tiyorsiz. Keyingi uch baytda “o‘lim”ga rizolik sabablari sharhlanadi. “Ashki gulgun”ning tugashi, “za’faroni yuz” bilangina qolinishi – bular haqiqiy oshiqqa xos kamolot belgilari. Bu holatga erishgan kishiga falak zulm o‘tkazishi, ahli diyor g‘animlik nazari b-n qarashi tabiiy. Majnun qismatini xotirlang. Uni kim tushundi? Deyarli hech kim. Odamlardagi gumrohlikni falak avj oldirmaganida Majnun dasht-u sahrolarga bosh olib chiqib ketarmidi? Qattol falak hamisha ko‘nglida “ruhiy qudsi” nazul qilgan oshiqlarning “xazon birla bahorini” bexato ajratib bergan. Ular go‘yoki xazon farzandlari. Xazon yaprog‘i yanglig‘ sarson-sargardonlik u-n dunyoga kelganday. Shoir yomon holi, tilingan bag‘ir qoniga belangan yuzini ko‘rgan kishining ko‘ngli og‘rishini e’tirof etsa-da, baribir yor-u diyoridan qochishga qat’iy ahd qiladi:

Diyorim ahli birla yordin boshimg‘a yuz mehnat,
Ne tong, boshim olib ketsam,
qo‘yub yor-u diyorimni.

Qismat mayi achchiq va taxir, degan gap bor. Bu boda soqiyi azal – Xudo tomonidan ato etiladi. Shuning u-n N. o‘sha soqiyga murojaat qilib, taqdir qadahig‘a “zahri qotil quy”, yana xumorimni tarqat deydi:

Hayotim bodasidin sargaronmen asru, ey soqiy,
Qadahqa zahri qotil quy, dag‘i daf’ et xumorimni.

N.ning nuqtayi nazarida dunyodan kechish — “zahri qotil” ichib kun kechirishday gap. Bu achchiq zaharni sipqormaguncha, jahonni tark etib bo‘lmaydi. Tarki jahon qilmaguncha, tinim va xotirjamlik, qanoat va darveshlikka erishish mumkin emas.

Jahon tarkin qilmay, chunki tinmoq
mumkin ermastur,
Navoiy, qil meni ozod o‘rtab yo‘q-u borimni.

Oxirgi satrda iyhom san’ati ishlatilgan. Uni “Yo‘q-u borimni o‘rtaydigan bir navo qilg‘ilki, men butunlay ozod bo‘lay”, ma’nosida anglasa ham bo‘ladi. Bu kuyning ijrochisi Xudodir. Bu ilohiy navo inson Ruhini haqiqiy ozodlik maqomiga ko‘taradi. Xuddi shu navo ishq ahlini junun vodiysiga chorlaydi:

Junun vodiysig‘a moyil ko‘rarmen joni zorimni...

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

I.H.

JUR’A – tomchi, qatra. Mumtoz adabiyotda, jumladan, N. she’riyatida ham J. aslida oshiq qalbiga inadigan ilohiy nur, ma’naviy huzur-halovat, shuningdek, solikning asta-sekinlik b-n o‘z botinini anglash sari borayotgani, bundan hayratlanayotganini anglatadi.

Soqiyo, ul kavsaroso bodadin bir jur’a tut,
Kim, meni hayrong‘a bo‘lmish kashf
sirri lav kushif.

Ma’lumki, shoir u-n ilhom manbayi bu – hayotning o‘zi. Shu sababli, shoir fikr-qarashlari, his-tuyg‘ulari, sezgi-kechinmalarini yuzaga chiqarishga xizmat qiluvchi obraz, tushuncha va istilohlarning ham moddiy asosi, real manbasi mavjud. Jumladan, J.ning ham. Aslida, u “qadahdagi ichimlikni bir martada, ya’ni bir ho‘plam yoki bir qultumda ichish deganidir. Islomdan oldingi davrlarda qabristonda sharobning bir J.ini yerga to‘kish b-n o‘tganlar, marhum kishilar xotirlangan”ligi haqida manbalarda aytilgan. Ma’rifiy adabiyotda ham J. “yorning betoqat qiluvchi yodi”ni bildiradi. Sajjodiyga ko‘ra, u “sayr maqomiki, solik uni izlab topa bilmog‘i kerak, ya’ni jur’a solikka noma’lum qolib ketgan sir-asrorlar va maqomotlarni anglatadi”. Yuqoridagi baytda uning barcha ma’nolari o‘z ifodasini topgan.

Ad.: *Доктор Ҳасан Анварий. Фарҳанги бузруки сухан. Иборат аз 7 жилд. Жилд 3. – Теҳрон, 1381 ҳ/ш; Сажжодий Жаъфар*

Сайиид. Фарҳанги мусталиҳоти урафои мутасаввифа ва шуаро. – Теҳрон, 1332 ҳ.

M.A.

JO‘GI MIRZO (1400–1445) – Shohrux mirzoning o‘g‘li. Ulug‘bek va Boysung‘ur mirzo b-n onasi bir, ya’ni Gavharshodbegimdan tug‘ilgan. Balx viloyatida hokimlik qilgan.

N. asarlarida J.M. nomi turli munosabatlar b-n tilga olingan. “M.N.”da Fasix Rumiy degan shoir haqida ma’lumot berar ekan, N. uning J.M. huzurida xizmat qilganini aytib o‘tadi. N.ning yozishicha, Jo‘gi mirzoning qasrlari, bog‘laridagi imoratlarning devorlarida Fasih Rumiy she’rlari bitilgan ekan. Sohib Balxiy zikrida uning o‘z g‘azallariga musiqa bog‘lagani haqida xabar beriladi va shunday so‘zlar bitiladi: “Ul jumladin “Chahorgoh “amalidurkim, mashhurdur. Derlarkim, Jo‘gi mirzo majlisida ul amaldin o‘zga nima aytturmas ekandur...”.

“N.Sh.” devonida “Jo‘ki shohning qasrida Shoh Jo‘ki maskan tutqon bobda” deb sarlavha qo‘yilgan quyidagi qit’a mavjud:

Dahr jo‘kiliklaridin turfa ish,
Chehra ko‘rguzdi bizning shoh asrida.
Kim fusuni da’b birla tutti yer,
Shoh Jo‘ki shohi Jo‘ki qasrida.

Qit’aning mazmuni J.M.dan qolgan qasrni kimdir hiyla-nayrang b-n egallab olgani (“fusun-u da’b birla tutti yer”)ga ishora qiladi. N. “dahr jo‘kiliklari” (dunyoning nayrangbozligi) tufayli yuz bergan “turfa ish”, deganda shuni nazarda tutadi.

Ad.: *Абдураззоқ Самарқандий. Матлаъйи саъдайн ва мажмайи баҳрайн. Жилд 2. – Т., 2008; Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

Q.E.

JO‘NG – N. asarlarida kema, katta kema degan ma’noni bildiradi. Lekin adabiyotshunoslikda o‘z ichiga turli mualliflarning turli janrlarga oid she’r va she’riy parchalarini jamlagan to‘plamni anglatadi. O‘z xarakteriga ko‘ra, J. bayozga yaqin bo‘lib, Muhammad G‘iyosiddin binni Jaloliddin Rompuriyning “G‘iyos ul-lug‘ot” asarida J. “katta bayoz” (“bayozi buzurg”) deb ta’riflangan. J.ni tuzuvchi unga xohlagan she’rini kiritishi, biron qat’iy qoidaga amal qilmasligi mumkin. Ayrim lug‘atlarda J. tazkira (antologiya) sifatida ham izohlanadi. J.larda og‘zaki adabiyot namunalari ham bo‘lishi mumkin.

N.ning lirik she’rlaridan namunalar Boku qo‘lyozmalar fondlaridagi J.lardan keng o‘rin olgan. “F.Sh.” dostonini yozishga kirishar ekan, N. bu asar syujeti qahramonlari tarixi b-n bog‘liq ko‘pgina tarixiy asarlarni ham o‘qib chiqqan bo‘lib, ular orasida turli tarixiy ma’lumotlarni o‘zida aks ettirgan, jumladan, J.larga ham duch kelgan va ular b-n ham jiddiy tanishib chiqqan, bu tarixiy kitob va to‘plamlardagi ma’lumotlar asosida tarix va adabiyotga qator tuzatishlar kiritgan, o‘z asarini yozgan. Bu haqda N. “F.Sh.”ning nasriy bobida yozadi: “Bu iqbol varaqlarining muqobalasi va bu saodat tarxlarining mutorahasi va xayol bahrida maoniy tuhafi savdosi uchun masohat qilmoq” va har fasona safinasin varaq-varaq, balki har tarix jo‘ngin safha-safha axtarib, daryozada ajnosqa rad iligin urmoq va maoni aqmishasi nafoyisin bu latofat hujlasi aroyisi uchun g‘ayb tujjoridin hayot naqdin berib savdo qilmoq va jon rishtasi va kiprik ignasi bila libosi namoyish va xil’ati oroyish tikib, bu abkor qadlarig‘a solib jilva bermak”.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-жилдлар. – Т., 2011; Навоий асарлари луғати. – Т., 1972; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 1-4 жилдлар; Персидско-русский словар. Жилд 1. – М. 1970; Нагиева Д. М. Бикинские рукописи Алишера Навоий, 1986; Нагиева Д. М. Алишер Навои и азербайджанская литература*

(XV–XIX вв). Автореферат докторской диссертации. – Баку, 1986.

Q.E., S.O‘.

JO‘RABOYEV Otabek (20.06.1973, Qo‘qon) – adabiyotshunos va matnshunos; f.f.n. (2003), katta ilmiy xodim (2020). Qo‘qon davlat pedagogika institutining O‘zbek filologiyasi va tarix fakultetini tugatgan (1997). 1998-y.dan O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyida aspirant, bo‘lim boshlig‘i, katta ilmiy xodim va hozirda ilmiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari bo‘lib ishlaydi.

J.O. Davlat adabiyot muzeyi fondida saqlanuvchi N. asarlari qo‘lyozmalarini ilmiy tavsif qilish va tadqiq etishda ishtirok etgan. U N. devonlari qo‘lyozmalari, jumladan, “X.M.”ning nodir nusxalari, ularning ko‘chirilishi va ko‘chirilish turkumlariga ko‘ra tasnifi bo‘yicha kuzatishlar qilgan. N. devonlari va temuriylar davri devonchiligining Qo‘qon adabiy muhitiga ta’siri borasida izlanishlar olib borgan. Shuningdek, qo‘lyozmalar asosida N. devonlariga kirmay qolgan bir necha g‘azallarni aniqlagan, ularning matni va shoirga tegishliligi borasida tadqiqot qilgan. Bobur qo‘lyozmalarida N. asarlaridan keltirilgan namuna va parchalarning matnida aniqliklar kiritgan. Shu b-n birga J.O. O‘zbekiston va jahon fondlaridagi N. asarlari qo‘lyozmalarining adadi masalasini ilk marotaba ilmiy jamoatchilik e’tiboriga olib chiqqan.

J.O. N. lirikasiga oid ayrim jihatlar – she’riy matn masalasi, badiiy va g‘oyaviy mazmun ifodalanishi, badiiy san’atlarning N. she’riyatidagi o‘rniga oid maqolalar yozgan. Olim tarafidan N. asarlari, xususan, “S.I.” dostonidagi mug‘anniyga murojaatlar va mug‘anniynomalar haqida, N. ning tarixga munosabati va tarixiy asarlardagi N. siymosi haqida ham risolalari chop etilgan.

Ad.: *Жўрабоев О. Навоий ва тарих. – Т., 2016.*

S.O‘., Sh.R.

JO‘RAYEV Sherali (1947–2023, Andijon) – hofiz, sozanda, shoir, bastakor. O‘zbekiston (1987) va Tojikiston (2018) xalq artisti, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi. N. nomidagi davlat mukofoti (1991), “Fidokorona xizmatlari uchun” (2018), “El-yurt hurmati” (2022) ordenlari b-n taqdirlangan. Andijon viloyati Asaka tumanida tug‘ilgan. Toshkent teatr va rassomchilik instituti (1972) va Mannon Uyg‘ur nomidagi Toshkent davlat san’at institutini tugatgan. O‘zbek davlat estradasi (1972–1973), “Shodlik” ashula va raqs ansambli (1972–1979), Andijon vil. filarmoniyasi (1979–1986), O‘zbek davlat filarmoniyasi (1986–1996), “O‘zbeknavo” birlashmasida (1999–2023) yakkaxon xonanda bo‘lgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati (1990–95).

J.Sh. o‘zining noyob iste’dodi, betakror ovozi va yuksak ijro mahorati b-n yuzlab yorqin qo‘shiqlar yaratib, xalqimiz o‘rtasida munosib obro‘-e’tibor topdi. Mumtoz va zamonaviy adabiyotimizning ko‘plab she’riy namunalarini kuyga solib, o‘zbek qo‘shiqchilik san’atining “oltin fondi”ni boyitishga beqiyos hissa qo‘shdi.

Uning ijrosidagi qo‘shiqlar tinglovchini fikr-mushohadaga undovchi chuqur falsafiy va ijtimoiy mazmuni, qalb torlarini chertadigan teran insoniy dardga yo‘g‘rilgani, xalqchilligi va jozibadorligi b-n ajralib turadi. J.Sh. repertuari ko‘p qirrali va rang-barang. Qo‘shiqlari asosini Sharq mumtoz (N., Bobur, Sa’diy, Rumiy, Hofiz Xorazmiy, Mashrab, Nodira, Uvaysiy, Ogahiy va b.) va zamonaviy (E.Vohidov, A.Oripov, H.Xudoyberdiyeva, U.Azim, S.Sayyid va b.) shoirlarning she’rlari tashkil etadi. Ijro etgan qo‘shiqlari soni 600 dan oshadi. Aksar qo‘shiqlarining kuyini o‘zi bastalagan. Ular orasida “Birinchi muhabbatim”, “O‘zbegim”, “Karvon”, “Achchiq haqiqat”, “Yaralgan”, “Oshiqlar sardori”, “Inson qasidasi”, “Oshiq bo‘ling” va boshqalar

bor. “Bobo Dehqon”, “Zamon”, “Qarashlarga”, “Ona Turkiston”, “Sohibqiron”, “Do‘st bo‘lsang, yonimda tur”, “Qayon ketmoqdasiz?” kabi qo‘shiqlarining matnini o‘zi yozgan.

J.Sh. N.ning “Munojot”, “Ko‘ngil”, “O‘n sakiz yoshindadir”, “Istangiz”, “Zebo emas”, “Ayriliq”, “Gul’uzorim”, “Mo‘g‘ulchayi dugoh” kabi g‘azallari, “Avvalgilarga o‘xshamas” g‘azalining O.Matjon muxammasiga kuy bastalab, ijro etgan, ulug‘ shoir g‘azallari b-n aytiladigan ashulalar asosida teatrlashtirilgan tomoshalar tashkil qilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011.*

B.R.

JO‘RAYEVA Laylo Shuhratovna (1988, Farg‘ona) – san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). J.L.Sh. san’atshunoslik fanlari d-ri, prof. T.G‘ofurbekovning ilmiy rahbarligida 2021-y.da, aynan, N. boy ijodiy merosining musiqa san’atiga bog‘liq bo‘lgan jihatlariga bag‘ishlangan “Alisher Navoiy va musiqa san’ati” mavzusida doktorlik (PhD) dissertatsiyasini himoya qilgan.

J.L.Sh. “Alisher Navoiy mug‘anniynomalari” nomli ilmiy risola va 30 dan ortiq ilmiy maqolalar muallifidir. Olima “Alisher Navoiy: qomusiy lug‘at”i loyihasining ishtirokchisi sifatida N. va musiqa san’atiga oid o‘ndan ziyod istilohlarni izohlab so‘z-maqola bitgan. J.L.Sh.ning tadqiqotida N. merosida musiqashunoslik atamalari, alloma merosidan o‘rin olgan cholg‘u, maqom, bastakorlar va bastakorlik ijodiyoti, ijrochilar va ijrochilik mezonlariga oid atamalar, musiqiy shakllar va janrlar, N. she’riyati b-n chambarchas bog‘langan maqomlarda aruz va usul masalasi kabi jihatlarga e’tibor qaratilgan.

Ad.: *Жўраева Л. “Алишер Навоий ва мусиқа санъати” 17.00.02 Мусиқа санъати. Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертақияси автореферати. – Т., 2021; Жўраева Л. “Алишер Навоий муғаннийномалари”. – Т., 2011.*

B.R.

JO‘RAQULOV Uzoq (1967, Qashqadaryo) – adabiyotshunos olim, munaqqid, f.f. d-ri, prof., O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi. J.U. “Xamsa”da xronotop poetikasi” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. U N. “X.”sidagi janr, kompozitsiya, syujet, obraz muammolarini tarixiy janrlar kontekstida xronotop nazariyasiga ko‘ra asoslab, tahlil qilgan. “H.A.”ning “X.” dostonlarini yagona kontekstda uyg‘unlashtiruvchi, universal xronotop maydoniga ega “kompozitsion qolip” ekanini nazariy asoslagan. “X.” syujetining “yo‘l”, “suv”, “sahro”, “qasr”, “tog‘-g‘or” singari badiiy xronotop shakllarini jamlovchi bir butun poetik sistema ekani, “oshiq – ma’shuqa – raqib” deb nomlanuvchi birlamchi (eng qadimgi) tizimga mansub universal obrazlarning “X.” kontekstidagi semantik-struktural xossalarini chuqur tahlillar orqali ochib bergan.

U O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “Madaniyat va ma’rifat” kanali orqali efirga uzatilgan “Xamsaxonlik” ko‘rsatuvining muallifi sifatida faoliyat ko‘rsatgan.

Ad.: *Жўрақулов У. “Лисон ут-тайр”да хронотоп шакллари. Монография. – Т., 2010; Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари. – Т., 2015; Жўрақулов У. Алишер Навоий “Хамса”сида хронотоп поэтикаси. – Т., 2017.*

Q.E.

K

“KAVSAR” (ar. – farovon, mo‘l-ko‘l) – 1. Qur’oni Karimdagi sura. 2. Diniy manbalarda jannatdagi ariq yoki ko‘l nomi. Shuningdek, K. jannatda Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v) ga atalgan nihoyatda katta va go‘zal bir hovuz bo‘lib, uning suvi sutdan ham oq, asaldan shirin, muzdan-da sovuq, qaymoqday yumshoq deya ta’riflanadi. K.ning atrofida oltin va kumushdan ishlangan kosalar terib qo‘yilib, suvidan ichgan kishi boshqa sira ham chanqamaydi, deyilgan. Rivoyatlarda K. daryosining sohillari zarrin, qa’rida esa qizil la’l-u yoqut, dur-u javohir uyulib yotishi tasvirlanadi. Go‘yo bihishtdagi barcha ariqlarning suvi K.ga quyiladi. Sharq adabiyotida esa K. to‘kinchilik, farovonlik ramzi bo‘lib keladi.

Mumtoz she‘riyatda “obi Kavsar”, “Kavsar suyi”, “Kavsar suvi”, “mayi Kavsar” tamsillari ko‘plab uchraydi. Bu birikmalar o‘zi ifoda etgan ma’no tabiatiga yaqin iymon, e’tiqod, mo‘minlik saodati, ilohiy ilhom, Haqning marhamatidan umidvorlik kabi mazmunlarni ham yuzaga chiqaradi. Irfoniy she’riyatda bo‘lsa ilohiy ishq mayi K. suvidan ustun qo‘yiladi. M-n, N. quyidagi baytida “Faqatgina zohiriy toat-ibodatlar va ular evaziga erishiladigan kavsar mayi meni o‘zligim – nafs-u havo zanjiridan to‘la xalos eta olmaydi, ya’ni bu dunyo muhabbati va to‘siqlaridan qutqazmadi. Bu mashaqqat, ya‘ni ishq yo‘lidagi qiyinchiliklarga foniylik jomi – moddiyatni va barcha orzu-istaklarni tark etib, ruhiyatgagina bog‘lanish, dunyo sevgisini yengib, yolg‘z ilohiy ishqqa erishish ko‘proq naf keltiradi”, – deb ta’kidlaydi:

Chu kavsar jomi zikri qilmadi raf’ o‘zlugum qaydin,
Bu ranjimg‘a hamono naf’ etar jomi fano asru.

Quyidagi misralarda ham mana shunday mazmunlar ifoda etilgan:

Sanga Kavsar suyi-yu lahni
Dovudiyki, dayr ichra
Mug‘anniy nag‘masi birla
manga jomi mug‘ona bas.

Ma’shuqa labining suvini K. mayiga o‘xshatding, holbuki, u mayning lazzati va nash’asi o‘zgachadir, deydi shoir yana bir baytida:

La’lini kavsar mayig‘a garchi tashbeh aylading,
Ey Navoiy, bordurur bu mayda o‘zga choshni.

Umuman, K. mutafakkir shoir N.ning badiiy niyatini yuzaga chiqaruvchi timsollar sirasiga kiradi.

Ad.: *Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988; Ислом (Энциклопедия). – Т., 2004; Искандар Пала. Муттоз шеърият қомусий сўзлиги. – Истанбул, 2004; Очилов Э. Бир ҳовуч дур. – Т., 2011; Асадов М. Риндона маъно ва руҳият тасвири. – Т., 2019.*

M.A., E.O.

KADXUDOLIG‘ SIFATI VA XOTUNLAR ZIKRIDA – “M.Q.” asarida mazkur masala alohida yoritiladi. Lug‘atlarga ko‘ra, kadxudolig‘ – uylanish, eri yoki xotini bo‘lishdir. N., avvalo, kadxudolig‘ning zararlaridan bahs yuritadi: “Kadxudoliq, qutula olmas balog‘a mubtaloliq. Davosiz ranjg‘a xor-u zor bo‘lmoq va ilojsiz emgakka giriftor bo‘lmoq”. Ammo bosh-

din-ayoq alam va ozordan iborat bu rishtaning foydali tomonlarini ham ko‘rsatadi: “Muvofiq tushsa kadbon-u, davlat va jamiyatg‘a bo‘lmoq-durur hamzon-u. Uyning oroyishi andin va uylukning osoyishi andin. Jamoli bo‘lsa ko‘ngilga marg‘ub va salohi bo‘lsa jong‘a matlub. Oqila bo‘lsa, ro‘zgorg‘a andin intizom va maosh asbobig‘a andin tartib va saranjom. Bu nav’ juft kishiga qovushsa, balki mundoq komgorliq ilikka tushsa, nihoniy g‘am-u mehnatda hamroz va hamdaming bo‘lg‘ay va maxfiy va pinhon dard-u mashaqqatg‘a damsoz va mahraming bo‘lg‘ay. Ro‘zgordin har jafo yetsa, anising ul va charxi davvordin har ibtilo kelsa, jalising ul. Ko‘nglung g‘amidin ul g‘amnok va badaning za’f malolatidin ul halok”.

N. xotinlarning yaxshi va yomon xislatlarini ko‘rsatib, ularning oiladagi roli, jumladan, erkaklar shaxsini belgilashdagi o‘rnini ochib beradi: “…nosoz juft evga muhlik marazdur oshkor va nuhuft. Salita bo‘lsa, ko‘ngul andin ranja va qabiha bo‘lsa – ruhga andin shikanja. Yamon tillik bo‘lsa, abushqa ko‘ngli andin yarolig‘, yamon ishlik bo‘lsa – erga andin yuzqaroliq. Mayxo‘ra bo‘lsa – uydin obodliq bartaraf, badkora bo‘lsa – uy andin bayt ul-lataf”. N. ayollarning ko‘proq salbiy jihatlarini ko‘rsatib, o‘z nuqtayi nazarini bildiradi. Fitna, makr, xiyonat, hiyla, noinsoflik kabi illatlar ko‘pgina xotinlarning tabiatida uchrasa-da, ularni uch toifaga tasniflaydi: avom, xavos, xos ul-xosdur. Bu toifalarning har birini atroflicha ta’riflaydi. Avom va xavos toifadagi xotunlarni qattiq qoralaydi, biroq xos ul-xos toifasidagi ayollarni ulug‘laydi: “…xos ul-xoslari bularg‘a aksi mutlaq haqgo‘y va haqshunos va tillarida Haq va ko‘ngullarida dag‘i Haq. Ulamoyi islomg‘a alardin foyidayi umid, avliyoyi izom alar anfosidin mustafid, anbiyo mursalinni alarga modih bilg‘il, maloikayi muqarrabin alarg‘a egachi-singil. Iffat toridin boshlarida muqna’ va ismat hullasidin yuzlarida burqa’, bu burqa’ni ul yuzdin Haq yiroq qilmasun va futur yelidin bu parda ul vajhdin ochilmasun”.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик. 9 жилд. – Т., 2011.*

Z.R.

KAYQUBOD – “T.M.A.” asarida Eronning peshdodiylardan keyingi ikkinchi tabaqasi: kayoniylar sulolasi asoschisi sifatida keltirilgan qahramon nomi (Q.: Kayoniylar). N. uni Zob binni Tahmosb o‘g‘li Manuchehr naslidin edi, deb yozadi. K. ko‘p vaqti Amudaryo qirg‘oqlaridan o‘tib, turkiylar b-n jang-u jadal olib borgan. Afrosiyob Turondin Eronga lashkar tortib kelganda Zol Rustamni elchi qilib yuborib Kayqubodni Alburzkuhdan chaqirtiradi. Shu tariqa, u Eron saltanatiga hukmdor etib tayinlangan. Afrosiyob b-n jangda K.ning qo‘li baland keladi. K. afsonaviy pahlavon Rustamni o‘z qo‘shiniga lashkarboshi etib tayinlaydi.

N.ning ma’lumot berishicha, Luqmoni hakim, Ashmuil (a.s.) va Tolut K. hukmdorlik qilgan yillarda yashaganlar. Ayrim tarixchilarga ko‘ra, Hazqil (a.s.), Xizr (a.s), Ilyos va Alyasa’lar ham shu davrda umrguzaronlik qilishgan. N. K.ning hukmronligi 120 yil davom etganini yozadi. “T.M.A.”da keltirilgan to‘rtlikda esa K. nomi talmeh san’atini hosil qilgan:

Chu tuzdi jahon bazmini Kayqubod,
Surudi kayoni bila erdi shod.

Vale qildi charxi muxolifsiyar,
Aning dag‘i xunyogarin navhagar.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик. 8-жилд. – Т., 2011.*

Q.E.

KAYONIYLAR – qadimgi Eronda hukmronlik qilgan sulola. Dunyo tarix fanida – Ahamoniylar deb ataladi. Ahamon (Ahemen) degan kishidan tarqalgani u-n shu nomni olgan. Ahamon podsho bo‘lmagan. Sulola asoschisi Kir II hisoblanadi. Uni Kurush deb ham ataydilar. Kir II eramizgacha bo‘lgan 559-y.da Fors podshosi bo‘lgan. Keyin Midiya va Forsni birlashtirib, Ahamoniylar davlatiga asos solgan. So‘ngra grek shahar-davlatlarini istilo qilgan, Bobilni (Vavilonni) zabt etgan. 629-y.da Markaziy Osiyoga

yurish chog‘ida malika To‘maris boshchiligidagi massagetlar tomonidan mag‘lubiyatga uchragan va o‘ldirilgan. Uning o‘limidan so‘ng yuz bergan o‘zaro kurashlar tufayli Ahamoniylar davlati parchalanib ketgan edi, lekin shu suloladan chiqqan Doro I (Yevropa tarixchilari uni Dariy I deb ataganlar) davlatni qaytadan birlashtirgan. O‘sha paytdan to eramizdan avvalgi 325 y.gacha Ahamoniylar davlati dunyoning ulkan imperiyalaridan biri sifatida mavjud bo‘lgan va shu yili Aleksandr Makedonskiy qo‘shinlari zarbasi tufayli yo‘q qilingan. Ahamoniylarning so‘nggi vakili Doro (Dariy III) hisoblanadi. U Aleksandrdan yengilgandan so‘ng qochib Baqtriyaga ketgan va shu yerda o‘ldirilgan (er. avval 325).

N. “T.M.A.” asarida ushbu sulola haqida ma’lumot bergan. Sharqdagi an’anaga muvofiq u bu sulolani “Kayoniylar”, deb ataydi. Ushbu sulola vakillari sonini to‘qqiz kishi, deb ko‘rsatar ekan, N. ayrim tarixchilar Iskandarni ham shu sulolaga mansub, deb hisoblaganlari va K.ning umumiy sonini o‘nta deb ko‘rsatganlarini ham qayd etadi.

Sulolaning birinchi vakili deb N. Kayqubodni ko‘rsatadi va so‘ngra boshqalarni quyidagi tartibda bayon etadi: Kaykovus, Kayxisrav, Luhrosb binni Arund, Gushtosp, Bahman, Humoy, Dorob, Doro binni Dorob, Iskandar. Iskandar haqida yozar ekan, N. bu borada ixtilofli fikrlar mavjudligini aytib o‘tadi.

Boshqa sulolalar singari N. K.ga ham “S.I.” dostonida maxsus bob bag‘ishlagan. Dostonning XII bobida u mazkur sulola haqidagi ma’lumotlarni she’riy shaklda bayon qiladi. U o‘z maqsadini quyidagicha ifodalaydi: “Ikkinchi tabaqakim, kayoniylardur, alarning oliy taxtlari va kayoniy tojlarin boshdin-oyoqqacha demak”. Shunga ko‘ra u mazkur sulolaning har bir vakiliga alohida to‘xtalib o‘tadi. “T.M.A.” da bo‘lgani singari N. “S.I.”ning mazkur bobida ham K.ning birinchisi Kayqubod ekanini ta’kidlaydi:

Bulardin burung‘ini bil Kayqubod,
Ki erdi xiradmand-u odilnihod.

Sulola vakillari haqida yozganda, N. ular zamonida yuz bergan muhim voqealarni ham qayd etib o‘tadi. M-n, Gushtosb zikrida mazkur hukmdor davrida Zardushtning maydonga chiqqani, zardushtiylikning tarqalgani va Gushtosb ham shu dinni qabul qilgani haqida quyidagi ma’lumotlar mavjud: “Zardusht aning zamonida zuhur qildi. Va ul dinga da’vat qildi. Chun hakim erdi va riyozat jihatidin elni sayd qilib erdi, Gushtosbni ham firifta qildi. Gushtosb zardusht dinini ixtiyor qilib, elni ham ul millatqa kiyurdi”.

K.ning to‘qqizinchisi Doro binni Dorob (Doro III) Iskandar (Aleksandr Makedonskiy) b-n zamondosh bo‘lgan va Iskandar uning ustidan g‘alaba qozonib, mamlakatni o‘z tasarrufiga kiritgan. N.ning yozishicha, Doro III o‘n to‘rt yil podshoh bo‘lgan. Ushbu ma’lumotlarni qayd etgandan so‘ng muallif “T.M.A.”ning K.ga bag‘ishlangan qismini quyidagi ruboiy bilan yakunlaydi:

Yana bir necha vaqt Doroiy dahr,
Ichib no‘sh, davron anga berdi zahr.
Falak agar zahr berdi Dorog‘a bot,
Skandarga ham bermay obi hayot.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Э.А.Грантовский и др. История Ирана. – М., 1972.*

Q.E.

KAYXUSRAV – qadimgi afsonaviy Eron hukmdori va pahlavoni Siyovushning o‘g‘li – Afrosiyobga qizi Farid tomonidan nabira hisoblanadi. N. “S.I.” dostonida K.ning donoligi va taxtni boshqarishdagi adolati b-n jahon ahliga hukmron bo‘lgani haqida so‘z ochib, uni shunday tasvirlaydi:

Yana bo‘ldi Kayxusravi pokroy,
Jahon ahlig‘a roy ila kadxudoy.

N. dostonning boshqa o‘rinlarida ham mazkur hukmdorni tilga olib, K. yoritgan chiroqlar u ketgandan so‘ng xiralashdi, uning kabi boshqasini jahon ahli qaytib topa olmadi, deydi.

Shuningdek, N. o‘zining “T.M.A.” asarida ham K.ga maxsus to‘xtalgan. Ma’lum bo‘lishicha, Afrosiyob Erondan otasi Kaykovus ta’qibidan qochib kelgan Siyovushni kuyov qilib olgan edi. Lekin u e’tibori katta kuyovidan gumonga tushib, uni o‘ldiradi. Ota vafotidan so‘ng tug‘ilgan K.ni Kay-u Turondan qaytarib keltirib, Eron taxtiga chiqaradi. K. bobosi Afrosiyobdan otasining qasosini olish u-n avval lashkarboshilari Faromurz va Tusni yuboradi, keyinroq o‘zi ham Afrosiyob b-n jang qilib, uni Ozarbayjonda qatl etadi. 60 yil taxtda o‘tirgan K. Sulaymon (a.s.) va Fisog‘urs hakimga zamondosh bo‘lgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи мулки ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Толстов С. Последам древне-хорезмской цивилизации. – Л., 1948.*

B.R.

KALOMI JOME’ (ar. − jamlovchi so‘z, umumlashtiruvchi fikr) − bayt yoki she’rda fikrni pand-nasihat yoki hikmat b-n umumlashtirishga asoslangan ma’naviy san’at. Zamondan shikoyat, yaqinlardan hasrat qilib bitilgan misralarni ham K.J.ga nisbat beradilar. V.Rahmonov ular qatoriga yordan va g‘animlardan nolib yozilgan namunalarni ham kiritadi. Shunday qilib, K.J. o‘git, hikmat, falakdan, zamondan, yaqinlardan, yor-u ag‘yordan shikoyat b-n orasta qilingan (Ahmad Taroziy), shira-yu zeb berilgan kalom (Atoulloh Husayniy).

N.ning biror-bir asari ijtimoiy g‘oyalar, falsafiy fikrlar, ma’naviy-axloqiy mavzudagi pand-nasihatlar, chuqur bilim, keng dunyoqarash, katta hayotiy tajriba asosida tug‘ilgan hikmatli so‘zlardan xoli emas. Ayni shu jihatdan K.J. shoir asarlarida eng ko‘p qo‘llanilgan san’atlardan biri, deyish mumkin. Uning qit’a, ruboiy, fardlari asosan pand-u hikmat ruhida bo‘lib qolmay, qator g‘azallari ham boshdan-oyoq shu mazmunda. Dostonlari va boshqa janrdagi asarlari ham ma’viza-yu o‘gitdan bebahra emas. Ilk devoni “B.B.”da yozgan debochasida adabiyot − tarbiya vositasi ekaniga urg‘u berib, har qanday badiiy asar ma’rifiy fikrlar va pand-nasihatdan xoli bo‘lmasligi kerakligini qayd etib: “Devon topilg‘aykim, anda ma’rifatomiz bir g‘azal topilmag‘ay va g‘azal bo‘lg‘aykim, anda mav’izatangiz bir bayt bo‘lmag‘ay. Mundoq devon bitilsa, xud asr-u behuda zahmat va zoye’ mashaqqat tortilg‘on bo‘lg‘ay”, − deb yozgan san’atkorning ijodi bundan boshqacha bo‘lishi mumkin ham emas. U hatto o‘zining ishqiy g‘azallari ham ma’rifiy va falsafiy baytlardan begona emasligini alohida ta’kidlab o‘tadi.

Pand-u nasihat b-n oro berilgan baytga misollar:

Bo‘lub nafsingg‘a tobe’, band
etarsen tushsa dushmanni,
Senga yo‘q nafsdek dushman,
qila olsang, ani qil band.

Sen agar tarki tama’ qilsang, ulug‘ ishdur, bukim,
Olam ahli barcha bo‘lg‘ay bir taraf, sen bir taraf.

Hikmat b-n bezalgan baytlar:

Bori dushvorliqlarni o‘zungga aylasang oson,
Bori dushvorlig‘lar dog‘i bo‘lg‘ay shoyad osonlig‘.

Har kishi olamda erur yorsiz,
Bir sadafedur duri shahvorsiz.

Falak, zamon, dunyo tanqidi, ulardan shikoyat qilib yozilgan baytlar:

Kimki istar jonig‘a davron jafosi yetmagay,
Ko‘nglini davrondin uzsin, ahli davrondin dag‘i.

Falak rahzan, zamon dushman,
badan ravzan uza ravzan,

Qolib jon Xisravidin tan, chiqib tan
kishvaridin jon.
Dahr zolin to‘rt mazhab birla qildim
uch taloq,
Fard qildi bori mundoq
kadxudoliqdin meni.

Do‘st-u yaqinlardan shikoyat qilib yozilgan baytlar:

Do‘st dushmandin manga ko‘prak
chu tekurdi jafo,
Ne ajab, gar emdi dushman-do‘stlug‘
bo‘lg‘ay fanim.
Mehr ko‘p ko‘rguzdim, ammo,
mehribone topmadim,
Jon base qildim fido, oromijone
topmadim.

Ad.: *Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға // Ўзбек тили ва адабиёти, 2002; Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъ ус-санойиъ (А.Рустамов тарж.). – Т., 1981; Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т., 2006; Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Т., 2001.*

E.O.

“KAMOL ET KASBKIM...” – N.ning “G‘.S.” devoniga kiritilgan qit’asi

Kamol et kasbkim, olam uyidin,
Sanga farz o‘lmag‘ay g‘amnok chiqmak.
Jahondin notamom o‘tmak biaynih,
Erur hammomdin nopok chiqmak.

Kamol kasb etmoq degani – behad keng va teran tushuncha. Bu qit’ani o‘qiganda, avvalo, mana shu to‘g‘rida fikr yuritish kerak. N. “L.T.”da: “To‘rt unsur, yetti ko‘k va oltita tomon – bular koinotning nodir va eng oliy asosini tashkil etadi. Koinotdagi barcha narsalar ichida hammadan eng ulug‘i Inson bo‘lib, uning kamoloti oldida aql hayron qoladi”, – deydilar. Insonning kamolot yo‘li mana shu haqiqat haqida chuqur o‘ylashdan boshlanadi. Va u asta-sekin o‘zligini izlaydi. O‘zini tanigan olamni taniydi. Shu tariqa u “olam uyida” g‘am va g‘aflatda tutqun yashashdan ruhini qutqaradi. Hazrat N. “Kamol et kasbkim” deya da’vat qilganlarida komillik u-n zarur juda ko‘p xususiyatlarni nazarda tutganlar. Kishi o‘zini hirs, tama, nafs, g‘aflat, nodonlik singari mayllaridan poklamasa, u hech payt komil bo‘lolmaydi. Komillik u-n ulkan insoniy qalb, uni nurlantiruvchi so‘nmas ishq va keng qamrovli tafakkur zarur. Bularsiz ma’naviy-ruhiy mukammallik va aqliy balog‘at xususida so‘z aytish mumkin emas. Bulardan qaysi biridir yetishmasa, hammomga kirib, nopok chiqmoqday gap bo‘ladi. “Olam uyi”da yashash uning fuqarosiga aylanishdir. Tasavvufda tark degan tushuncha bor va u uchga ajratilgan: tarki dunyo, tarki uqbo (jannat tarki), tarki hasti (o‘zlik tarki). Ana shu uch tarkka erishmaguncha, hech kim komillik maqomiga ko‘tarildim, ya’ni to‘la poklandim, deya olmaydi. Qit’ada ushbu haqiqat ham ko‘zda tutilganki, suluk ahli uni shu ma’noda qabul qilishgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Haqqulov I. Kasbi kamol o‘zni tanishdir. – T., 2021.*

I.H.

KAMOL TURBATIY (t.y. va v.y.n. − XV asr, Turbat) − fors-tojik shoiri. Asosan Tabriz va Mashhadda yashab ijod qilgan. N.ning “M.N.”da ma’lumot berishicha, “ko‘p diqqatliq, tab’liq kishi erdi. Xoja Hofiz g‘azallaridan ko‘p muxammas qilibdur. Xurosonning mutaayyin, rangin zurafosidin erdi”. Haqiqatan ham, u Hofiz g‘azallariga bog‘langan muxammaslari b-n shuhrat qozongan, xususan, muammonavislikda tengsiz edi.

Mashhadda tahsilini davom ettirayotgan davrda qarovsiz kasal bo‘lib, bir hujrada yotgan N. u b-n tanishish baxtiga muyassar bo‘ladi. Qurbon hayiti arafasida odamlar muqaddas joylarni ziyorat qilish bilan birga, odatga ko‘ra,

beva-bechoralardan ham hol-ahvol so‘rar edilar. Shoir yotgan madrasa hujralariga ham tashrif buyurgan bir guruh devorga bitilgan bir she’r ustida bahslashib qoladilar. Ular orasidagi yoshi ulug‘ bir kishi boshqalarni yengib, mulzam qiladi. Shunda N. xasta holida bahsga sabab bo‘lgan masalani hal qilib beradi va o‘sha yoshi ulug‘ kishi o‘z fikridan qaytib, unga tan beradi va tahsin aytadi. Keyin ma’lum bo‘lishicha, u haj safariga otlangan va Mashhadda to‘xtagan K.T. ekan. U ham N. haqida eshitgani va uni bir ko‘rishga havasmand bo‘lib yurgani ma’lum bo‘ladi. Demak, N. hali yigitligidayoq K.T. kabi mashhur shoirlar ko‘rishni orzu qiladigan darajada shuhrat qozongan. Manziliga qaytgach, u N.ga hayitlik yuboradi va doim uning ahvolidan xabar olib turadi.

K.T. haj safaridan qaytib kelgach, Turbatda vafot etadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик. 9-жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 2. – Душанбе, 1989; Айний С. Асарлар. 8-жилд. – Т., 1967.*

E.O.

KAMOL XO‘JANDIY (1318–23, Xo‘jand – 1401, Tabriz) – fors-tojik shoiri. Mashhur fors-tojik shoiri va yetuk tasavvuf shayxi bo‘lgan Kamoliddin Mas’ud Xo‘jandda tug‘ilgan va boshlang‘ich ta’limni shu yerda olgan. Keyin Samarqand, Xorazm va Toshkentda tahsilni davom ettirgan. Arab tili va adabiyotini chuqur o‘rganib, o‘z davrining fiqh, kalom, hikmat, tafsir, hadis, tasavvuf kabi asosiy ilmlarini o‘zlashtirgan, hatto dehqonchilik va bog‘dorchilikdan ham xabardor bo‘lgan. XIV asrning o‘rtalarida haj niyati b-n safarga chiqib, qaytishda Tabrizda yashab qoladi. 1375–1383-yy. da Iroq va Ozarbayjonda hukmronlik qilgan Sulton Husayn Jaloyir Tabriz yaqinidagi Voliyonko‘h mavzeyidan bir bog‘ tuhfa qilgan. U bog‘ini obod qilib, uni Bihisht deb ataydi va topgan daromadini beva-bechoralarga tarqatadi. 1385-y. Darband va Tabrizni istilo qilgan Dashti Qipchoq shohi To‘xtamishxon K.X.ni ham o‘zi b-n Oltin O‘rda poytaxti Saroy shahriga olib ketadi. U shohning yaqinlari qatoridan o‘rin olib, saroyda osuda yashaydi va To‘xtamishxonning harbiy yurishlarida ham ishtirok etadi. U 11 y. Saroy shahrida yashab, 1396-y.da Tabrizga qaytadi. Davlatshoh Samarqandiyning ma’lumot berishicha, K.X.ning valiylik va irshodlik darajasi yuksak bo‘lib, shoirlik salohiyati shayxligi darajasida emas.

K.X. Temurning o‘g‘li Mironshoh b-n yaqin bo‘lib, u shoir uchun har oyda 10 ming dinor maosh tayinlagan ekan. Devoni 4 qasida, 917 g‘azal, 101 qit’a, 1 mustazod, 37 ruboiy, 1 mo‘jaz masnaviy, 11 muammo va 7 parokanda baytdan iborat bo‘lib, jami 7335 baytdan iborat. She’rlari sodda til, ravon uslubda yozilgan, badiiy san’atlarga boy bo‘lib, o‘zidan keyingi shoirlarga kuchli ta’sir ko‘rsatgan.

Sharq mumtoz so‘z san’atining betakror namoyandalaridan bo‘lgan K.X.ning o‘z davri shoirlariga kuchli ta’sir o‘tkazgani ma’lum. Y. Ripkaning yozishicha, XV asrda undan ta’sirlanmagan ijodkorning o‘zi yo‘q edi. Xalqchillik va mahoratni ajoyib tarzda o‘zida mujassam etgan bu zabardast so‘z san’atkori she’riyatni hayotga yaqinlashtirdi. Tilda soddalik, uslubda ravonlik, ifodada go‘zallikka intilgani u-n ham g‘azallari nafis va ta’sirchan chiqqan. Abdurahmon Jomiy bejiz so‘z latofati va ma’no nazokatida unga teng keladigan shoirni tasavvur ham qilib bo‘lmaydi, deb lutf etmagan. Davlatshoh Samarqandiy ta’biri b-n aytganda, o‘tmish va zamondosh shoirlardan hech biri u kabi nafis va go‘zal g‘azal aytmagan. Shuning u-n ham u, asosan, g‘azal ustasi sifatida shuhrat qozongan. Shoir o‘z g‘azallarida ko‘plab badiiy san’atlar qatorida xalq maqollari, qanotli so‘zlari va iboralaridan mahorat b-n foydalanadi.

K.X. asarlari asrlar davomida o‘zbek xalqi orasida ham sevib o‘qilgan. Toshkent, Samarqand va Xorazmda bir muddat yashagan va tahsil olgan bu o‘ziga xos shoirning rang-barang badiiy san’atlar hamda ohorli va go‘zal lutflarga boy g‘azallari qalam ahli u-n o‘ziga xos mahorat maktabi

hisoblangan. Xususan, Atoiy, Lutfiy, Hofiz Xorazmiy, Sakkokiy, Gadoiy, N., Bobur, Mashrab, Amiriy, Nodira, Ogahiy, Muqimiy, Furqat kabi so‘z san’atkorlari uni o‘zlariga ustoz sanab, unga ergashganlar, undan ta’sirlanib va ilhomlanib, g‘azallariga tatabbu’lar yozganlar, muxammaslar bog‘laganlar, uning yo‘lida ijod qilganlar.

N.ning shoir sifatida shakllanishi va ijodining badiiy yuksaklikka erishishida ko‘plab zabardast forsiy va turkiy so‘z san’atkorlari qatorida K.X. ning ham o‘ziga xos o‘rni bor. Bu g‘azal ustasi N.ning sevimli shoirlaridan biri bo‘lgan.

“N.M.” tazkirasida bu buyuk salafiga shayx-u avliyolar qatorida o‘rin ajratar ekan, uning she’riyatga mayl ko‘rsatishi o‘z holini she’r pardasiga o‘rash uchundir deydi. Holbuki, Davlatshoh Samarqandiy ta’biri b-n aytganda, uning shoirlik salohiyati ham yuksak bo‘lib, valiyligidan kam emas edi. Chindan ham, u tug‘ma shoir bo‘lib, nafaqat forsiy, balki turkiy she’riyat taraqqiyotida ham alohida o‘rin tutadi. “M.Q.” pandnomasida esa uni majoz tariqi adosi nazmig‘a g‘olib shoirlar sirasiga kiritadi.

K.X.ning N. ijodiga ta’siri ikki tomonlama bo‘lib, forsiy ijodiga bevosita, turkiy ijodiga esa bilvosita ta’siri bor. U “D.F.”da bu g‘azal ustasining 4 ta g‘azaliga tatabbu’ qilib, uning tavrida bir g‘azal yaratgan bo‘lsa, turkiy ijodida K.X. ta’sirida qator bayt-u misralar ijod qiladi. Jumladan, uning malik ul-kalom Lutfiyning tahsiniga sazovor bo‘lgan bolalikdagi ilk mashqlaridan bo‘lmish:

Orazin yopqoch, ko‘zimdin sochilur
har lahza yosh,
O‘ylakim, paydo bo‘lur yulduz
nihon bo‘lg‘och quyosh, –

matla’si ham K.X.ning:

To rux napo‘shi, kay shavad az dida
ashki mo ravon,
Pinhon nagashta oftob axtar
nameoyad burun, –

misralaridan bevosita yoki bilvosita ta’sirlanib yozilgani shubhasiz. Albatta, bu ikki bayt orasida mushtarakliklar b-n birga tafovutlar ham mavjud. Jumladan, K.X. g‘azali rajazi musammani solim, N. g‘azali esa ramali musammani maqsur vaznlarida yaratilgan. Murojaat shakliga ko‘ra esa K.X. bayti 2-shaxs, N. bayti 3-shaxs birlikda yozilgan. K.X.: “Oftob pinhon bo‘lmay yulduz paydo bo‘lmaganidek, sen ham yuzingni yashirmaganingda bizning ko‘zimizdan yoshimiz ravon bo‘larmidi?” – deya 2-shaxs birlikda bevosita ma’shuqaga murojaat qilib, biz deyish b-n uning oshiqlari ko‘pligi, binobarin, u ilohiy mahbuba ekanligiga ishora qilsa, N. 3-shaxs birlikda: “U yuzini yashirsa, ko‘zimdan har lahza yosh sochiladi – bu hol xuddi quyosh botib ketganidan keyin yulduzlarning chiqib kelishiga o‘xshaydi”, – tarzida o‘ziga xos tasvir yaratadi. Bu ikki bayt orasidagi tafovutlar vazn, qofiya, tasvir va ifodada. Agar yosh Alisherning bu misralari salaf shoir baytining shunchaki ijodiy tarjimasidan iborat bo‘lganida K.X. ijodini har tomonlama keng va chuqur bilgan va uning bevosita ta’sirida ko‘plab g‘azal va baytlar yaratgan Mavlono Lutfiy uni badiiy kashfiyot darajasida baholamagan va butun ijodimni unga alishishga tayyorman, deb mubolag‘ali lutf qilmagan bo‘lar edi.

N. ijodida keng qo‘llanadigan ogoh insonni tamsil etib kelgan ziyrak qush, dunyo ramzi o‘laroq qo‘llangan korgah, shuningdek, suv kishisi (mardumi obi) kabi timsollar; mayda yor aksining jilva qilishi; bu dunyo suv uzra qurilgan omonat binoligi; bedardlikdan ortiq dard yo‘qligi; ma’shuqaning boshidan oyog‘igacha go‘zallik tajassumi ekanligi, chunki u oy va kunning farzandiligi haqidagi qarashlar K.X. ijodida ham ancha faolligini ko‘ramiz. Jumladan, N. dunyo va nafs tanqidiga bag‘ishlangan g‘azal va baytlarida insonni ziyrak qush timsolida tasvirlab, obrazli yo‘sinda uni bevafo va o‘tkinchi dunyoga ko‘ngil bermaslikka, nafs ko‘zi b-n don-u suvni ko‘rib, aql ko‘zi b-n uning ortidagi tuzoqni payqamaslik natijasida domga tushib, o‘z ochko‘zligining qurboniga aylanmaslikka undab, dunyo makri va nafs tuzog‘idan ogoh bo‘lishga da’vat etadi:

Dahr bo‘stonig‘a ziyrak qush
ne qilsun maylkim,
G‘uncha juz qonlig‘ ko‘ngul ochmas
bu gulshan gulbuni.

“Ziyrak qush qanday qilib dunyo bo‘stoniga ko‘ngil qo‘ysinkim, bu gulshanning guli qonli ko‘ngildan bo‘lak g‘uncha ochmaydi”.

K.X. esa quyidagi irfoniy mazmundagi baytida: “Haq oshig‘i faqat Xudoning diydorini tilaydi – uni jannat va uning ne’matlari bilan aldayolmaysan, zero, ziyrak qush bunday aldov vositasi bo‘lgan don uchun domga tushmaydi”, - deb o‘tkir kinoya qiladi:

Ba bihishtam chi firisti-yu ba jannoti naim,
Murg‘i zirak ba chunin dona nayaftad dar dom.

“D.F.”da esa N.ning K.X.dan bevosita ta’sirlanib, uning qator g‘azallariga tatabbu’ qilgani va o‘zining buyuk salafi tavrida g‘azal yozganini ko‘ramiz. M-n, K.X.ning Xo‘ja Hofiz tahsiniga sazovor bo‘lgan mashhur:

Yor guft: “Az g‘ayri mo po‘shon nazar!”
Guftam: “Ba chashm!”
“V-on gahe duzdida bar mo menigar!”
Guftam: “Ba chashm!” , –

Yor aytdi: “Bizdan boshqasidan ko‘zingni yum!” Dedim: “Ko‘z ustiga!” Yana dediki: “Va o‘sha damda o‘g‘rincha bizga ko‘z tashla”. Dedim: “Ko‘z ustiga!” matla’li g‘azaliga ayni vazn (ramali musammani maqsur) va qofiyada go‘zal tatabbu’ qiladi:

Guft: “Rohamro biro‘b!” – on simbar.
Guftam: “Ba chashm!”
Guft digar: “Rah bizan obash digar!”
Guftam: “Ba chashm!”

“U kumushday oqbadan yor aytdi: “Yo‘limni supurib qo‘y!” Dedim: “Ko‘z ustiga!” Yana aytdiki: “Bu yo‘lga yana suv ham sepib qo‘y!” Dedim: “Ko‘z ustiga!”

G‘azal ham, tatabbu’ ham ramali musammani maqsur (foilotun foilotun foilotun foilun) vaznida. N. K.X. g‘azalidagi faqat 2 baytdagi fikrlarni o‘zgartirib, ularni o‘z qarashiga ko‘ra rivojlantirgan, qolgan baytlarda esa mavzuni o‘ziga xos tarzda davom ettirgan va mushtarak vazn va qofiyadagi yangi g‘azal yaratgan. N. o‘z tatabbu’siga so‘fiyona tus berish orqali mazmunni teranlashtirish, ma’no qirralarini rang-baranglashtirishga erishgan. Unda dunyodan uzilish falsafasi bor. Ayni paytda, N.da g‘azal badiiyati chuqurlashgan.

“D.F.”da K.X.ning “Chi kam shavad zi tu, ey mah, ki bar manat guzar aftad”, “Buvad hamchun dili man sunbuli on sarvi simandom”, “Dili man ba dog‘i vafo so‘xti” misralari b-n boshlanadigan g‘azallariga ham tatabbu’ qilgan va uning tavrida bir g‘azal yozgan. Bu g‘azallarning qiyosiy tahlilida ham K.X.da xalqona ruh va ohang kuchliligi, N.da esa irfoniy g‘oya va mazmun ustunligini ko‘ramiz.

Ad.: *Алишер Навоий. Девони Фоний. ТАТ. 10 жилдлик. 5-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик. 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик. 9-жилд. – Т., 2011; Шайх Камоли Хужандий. Девон. Иборат аз ду жилд. – Х., 2020; Амир Низомиддин Алишери Навоий – Фоний. Девони форси. – Душанбе, 2021; Камол Хўжандий. Девон (Васфий таржимаси). – Т., 1962; Камол Хўжандий. Ғазаллар, қитъалар, рубоийлар (Ш.Шомуҳамедов тарж.) // Инжулар уммони. – Т., 1988.; Камол Хўжандий. Рубоийлар // Донишмандлар туҳфаси. – Т., 2009; Абдураҳмони Жомий. Баҳористон. – Душанбе, 2014; Давлатшоҳи Самарқандий. Тазкират уш шуаро. – Х., 2015; Рипка Я. История персидской и таджикской литературы. – М., 1970; Ҳомидий Ҳ. Ҳаётбахш ғазаллар куйчиси // Камол Хўжандий. Девон (Васфий таржимаси). – Т., 1962; Абдуллаев В. Навоий ва назира // Сайланма (Адабий-танқидий мақолалар). – Т., 1982; Очилов Э. Камол Хўжандий ва ўзбек адабиёти // ЎТА, 2016, №5; Очилов Э. Алишер*

Навоий ва Камол Хўжандий // Алишер Навоий ва Шарқ Ренессанси II халқаро симпозиуми (Мақолалар тўплами). – Т., 2023.

E.O.

KAMOLIDDIN ISFAHONIY (taxallusi; to‘liq ismi: Abulfayz Kamoliddin Ismoil ibn Jamoliddin Muhammad ibn Abdulrazzoq Isfahoniy (1170/73 − Isfahon − 1237) − fors-tojik shoiri.

She’rlari nozik va teran ma’nolar, ohorli va kutilmagan timsol-u tashbehlarga boyligi jihatidan “Xalloq ul-maoniy” − “Ma’nolar ijodkori” deb ulug‘langan K.I.ning otasi Jamoliddin Isfahoniy ham taniqli shoir bo‘lgan. Yigirma yoshidayoq qasidanavis sifatida tanilgan. Mohir zargar ham bo‘lgan. Umrining oxirida xilvatga chekinib, tasavvuf b-n mashg‘ul bo‘lgan. Mo‘g‘ul jangchilari tomonidan o‘ldirilgan.

Shoir devoni 15 ming bayt she’rni o‘z ichiga olib, qasida, g‘azal, qit’a, tarkibband, ruboiy kabi janrlardan iborat.

U fors-tojik adabiyotida, asosan, qasidanavis shoir sifatida mashhur. Bu qasidalar ulug‘ shayxlar, fors otabeklari, Tabariston va xorazmshohlar hokimlari hamda ilm-u adabiyotning mashhur namoyandalariga bag‘ishlangan. Ayni paytda, u fors-tojik so‘z san’atidagi mashhur ruboiynavislardan bo‘lib, undan bizgacha 867 ta ruboiy yetib kelgan.

N. “M.Q.”da uni ijodida majoziy muhabbat tasviri ustun shoirlar jumlasiga kiritadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Забеҳулло Сафо. Ганжу ганжина. – Теҳрон, 1363 (ҳ.-ш.); Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 2. – Душанбе, 1989; Камолиддин Исмоил. Рубоийлар // Донишмандлар туҳфаси. – Т., 2009.*

S.R.

KAMOLIDDIN RUSTAMALI (XV asr, Hirot – Qazvin) – musavvir. Behzodning jiyani. Naqqoshlik san’atini tog‘asi Behzod va Og‘o Mirakdan o‘rgangan. Tazhib san’ati – zarhal berishda o‘z zamonining yagonasi bo‘lgan. Bir qancha muddat Husayn Boyqaro saroyida bosh muzahhib (zarhal beruvchi) bo‘lib faoliyat ko‘rsatadi. Ko‘plab shogirdlar tarbiyalab yetishtirgan. Jomiy, N. va Hotifiy devonlariga jadval tortib, ularga ziynat bergan.

Ad.: *Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 2. – Душанбе, 1989.*

E.O.

KAMOLIDDIN HUSAYN (XV asr.) – Husayn Boyqaroning vaziri Xoja Nizomulmulkning katta o‘g‘li. N.ning “M.N.” tazkirasida ma’lumot berishicha, o‘zi muloyim yigit bo‘lib, noma yozishda mohir bo‘lgan. Musiqiy iste’dodi ham bor bo‘lib, yaxshi naqshlar bog‘laganini ham aytadilar. Tab’i nazmi ham bor bo‘lib, yaxshi she’rlar yozgan. Jumladan, bir g‘azalining matla’si quyidagicha:

Garchi dar jannat nasimi xuld-u obi kavsar ast,
Xonayi xammorro ob-u havoyi digar ast.

Tarj: Agarchi jannatda boqiylik nasimi-yu kavsar suvi bo‘lsa-da, mayfurush uyining ob-havosi o‘zgachadir.

Zayniddin Vosifiyning yozishicha, she’rni yaxshi tushunadigan va o‘zi ham go‘zal she’rlar yozadigan K.H. Husayn Boyqaro huzuridagi majlislarda qatnashgan. Lekin saltanatining kelajagi bo‘lgan iste’dodli nabirasi Mo‘min mirzoning o‘limiga sabab bo‘lgani u-n Husayn Boyqaro Nizomulmulk xonadoni va yaqinlarini o‘limga hukm qilgan. Jumladan, o‘g‘li K.H.ning oyog‘iga kishan solib, Ixtiyoriddin qal’asiga olib ketayotganlarida badiha tarzida quyidagi baytni o‘qigan ekan:

Bar poy buvad band-u ba rah sangi jafoyam,
Tarsam, ki jahad otash-u so‘zad sar-u poyam.

Tarj: Oyog‘imda kishan-u yo‘limda jafo toshi. O‘t tutashib, boshdan-oyog‘im kuyishidan xavotirdaman.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Айний С. Восифий ва хулосаи "Бадоеъ ул-вақоеъ". – Душанбе, 1956.*

S.G'.

KAMOLIDDIN HUSAYNIY (XV asr – Hirot) − musiqashunos, sozanda, bastakor. N. uni bolaligidan tarbiyalab, homiylik qilgan. Soz chalishni Mahmud Husayniy, Mavlono Alishoh, Amir Murtoz, musiqa nazariyasini Xoja Abulvafo Xorazmiy, Xoja Shahobuddin Marvarid kabi o'z davrining mashhur sozanda va musiqashunoslaridan o'rgangan. Ud, qonun va tanbur chalishda mohir bo'lgan. Xondamir K.H. haqida "ovozi ud ovoziga nihoyatda mos tushadi, ustodlik ishlari va naqsh-u amalni yod biladi", deb yozadi. Shuning u-n ham Ustod Husayn nomi b-n mashhur bo'lgan. "Buzruk", "Navo", "Ushshoq", "Husayniy" maqomlari vaznida "Naqsh", "Peshrav", "Amal" silsilalarini yaratgan. "Naqshi Husayniy", "Amaloti Husayniy" kabilar uning mashhur kuylaridan hisoblanadi.

Ad.: *Хондамир. Хулосат ул-ахбор // Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 3. – Душанбе, 1989.*

E.O.

KAMOLUDDIN SULTON HUSAYN – N. ning akasi Shayx Bahlulning o'g'li, shoir, tarixiy manbalarda u N.ga farzand sifatida tilga olinadi. Uni N. "M.N."ning beshinchi majlisida tilga olgan va unga "Sulton Husayn" sarlavhasi b-n alohida fiqra bag'ishlagan, she'r bitishiga ishora qilib, uning bir baytini misol tariqasida keltirgan. O'qiymiz: "Sulton Husayn – "Xatmiy" taxallus qilur. Shayx Bahlulbekning o'g'lidur. Agarchi otasi holo faqr tariyqin ixtiyor qilib go'sha tutubdur, ammo Sulton Sohibqiron davlatidin Xorazm taxtida hukumat qilib, amorat devonida muhr bosti va og'asi yillar Balx (Qubbat ul-islom)da hukmron erdi. O'zi faqrvash va nomurodsheva yigitdur. Tab'i ham xoli salomat emas. Bu matla' aningdurkim:

Maro bisyor mushkil menamoyad furqati jonon,
Vidoyi joni shirin hast dushvor, ey musulmonon.

Tarj.: Jonondan ayrilish menga behad mushkul ko'rindi. Ey musulmonlar, shirin jon bilan xayrlashish qiyindir.

Xondamirning "Makorim ul-axloq" asarida ham u haqida ma'lumotlar uchraydi. Ayniqsa, N.ning vafoti munosabati b-n bitilgan voqealar bayonida K.S.H. nomi tez-tez tilga olingan. Chunonchi: "Sultoni Sohibqiron uch kungacha ul ahli dillar boshlig'ining uyida turdi, xudoyi va xatm buyurdi, shuning bilan birga nur sochuvchi zotning mozori boshiga borib, ziyorat shartlarini bajo keltirdi, oliy nasab Amirning ulug' birodari amir Nizomuddin Shayx Bahlul va ul janobning o'g'ilxoni amir Kamoluddin Sulton Husaynga va oliy hazratning boshqa yaqinlari va mulozimlariga mehribonlik ko'rsatdi". Sohibqiron N.ning vafotidan 40 kun o'tgandan so'ng u yana bir ma'raka o'tkazish fikriga keladi va ishni boshqarishni Amir K.S.H. va Xoja Jaloluddin Muhammadga topshiradi. Yana mazkur kitobning N. hamda Mirak Naqqosh b-n bog'liq ma'lumotida ham K.S.H. nomi esga olingan.

Ad.: *Навоий замондошлари хотирсида. – Т., 1986; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 1997.*

E.O.

KARAM (ar.) – yaxshilik, oliyjanoblik, ehson, marhamat, saxiylik; Didaktik xarakterdagi kitoblarda esa K. ko'proq hukmdorlar faoliyati b-n bog'lab talqin qilingan. Husayn Voiz Koshifiy "Axloqi muhsiniy"da K.ni "xaloyiqqa manfaat yetkazish, yaxshilik qilish, yaxshi ot chiqarishning sababidir", deb ta'riflagan.

N. asarlarida K.ning moddiy va ma'naviy ko'rinishiga juda ko'p misollar keltirilgan. K. sifati "Akram ul-akramin", ya'ni K.lilarning K.lisi

bo‘lgan Tangri taologa xosligini, K. sohibi esa Haqning bu sifatiga tobe’ kishi ekanini N. alohida uqtiradi:

Vaslig‘a yetushkung necha sa’b ersa, Navoiy,
Gar qilsa karam Tengri taborak va taolo.

N. “X.M.” muqaddimasida K. “karim”, “akrama” so‘zlari vositasida ishtiqoq san’atini qo‘llab, Payg‘ambarimiz Rasuli akram (s.a.v.)ga xos bo‘lgan oliyjanob xulq va saxovatni ta’riflaydi:

Yuz na’t angakim, xulqi karim o‘ldi fani,
Ya’niki, karam koni Rasuli madani,
Mundoq dedi ilm ahlini aylarga g‘ani,
“Man akrama oliman faqad akramani”.

N. “X.” u-n yozgan basmalaga ham “Kim karam erur el muhtaram” deb go‘zal xulosa yasagan. “H.A.”ning to‘rtinchi – oxirgi munojotiga “K. daryosi vasfidakim, inoyat nasimidin mavjg‘a kirsa, isyon xas-u xoshokin qirg‘oqlarg‘a iturur...” nomli ma’rifiy xarakterdagi hikmatomuz nasriy sarlavha bitgan, Allohning bu go‘zal sifatiga 38 baytda sharhlar yozar ekan, o‘zining go‘zal iltijolarini ham qo‘shib bayon aylagan. Alloh taoloning dargohi kengligini, bandalariga mehribonligi cheksizligini nazarda tutib, ularga yanada shafqatliroq, uzrlarini qabul qiluvchi, ularning tog‘-tog‘ gunohlarini go‘yo bir siqim somondek shamolga uchirib yuboruvchi qudratiga tan berib, tahsin aytgan:

Ey karaming oldida ko‘hi gunoh,
Yelga uchub o‘ylaki bir parri koh.

N. Alloh o‘rni b-n qancha qahrli bo‘lsa, o‘rni b-n shuncha K.li buyuk zot ekaniga nozik ishoralar qilgan.

Ushbu munojotda N. faqat Allohning “Al-karim” sifatini madh qilgan, ammo insonlarning K.lilik xususiyati, fazilati, sifatiga to‘xtalmagan, lekin ulug‘ shoir o‘zining ham Allohning lutf-u K.idan umidvorligini va hech kimni bebahra qoldirmasligini so‘rab qilgan iltijolarini poetik bayon qilgan:

Bo‘lsa navo birla bori muhtaram,
Aylama mahrum Navoiyni ham.

Ulug‘ shoir “H.A.”ning “K. vasfida...” deb nomlagan 5-maqolatida K.ning fazilati, ayni paytda uning turlari, haqiqiy K. va saxovat qanday bo‘lishi, insonlarga aloqador K. qoidasi, odobini ma’viza usulida gapirgan hamda K. va saxoni baxillik, hasad, isrof kabi qusurlar b-n o‘zaro qiyoslagan. Kishilarning Alloh ato etgan imkoniyati bo‘la turib, bir-biriga K. va saxiylik ko‘rsatmasligi insonlarni baxtsizlikka yetaklovchi ofat-u balodir, deb ko‘rsatgan. Olg‘a surgan ezgu hamda qiyosiy fikrlariga namuna tariqasida qo‘shiladi. Islom olamida K. va saxiylikning yuksak timsoliga aylangan Hotami Toyi, Barmak singari mashhur an’anaviy obrazlardan unumli foydalangan va ushbu maqolatga tamsil qilib nasriy usulda “Hotami Toyi hikoyatikim, himmat va saxo ahlig‘a peshvo erdi...”, degan hikoyatni keltirgan, kishilarni tamagir bo‘lib qolishdan esa jiddiy ogohlantirgan. Yana beshinchi maqolat matnida K. so‘zidan abr-u K., lutf-u K., livoyi K., K. bog‘i, K. durri, K. shevasi, K. gavhari, K. kisvati kabi sifatlashga yo‘g‘rilgan iboralar yasagan, karam – diram, diram – karam shaklida bir-biridan mazmunli qofiya va takrir san’atini ham yaratgan.

Ulug‘ shoir “S.I.” dostonida Nizomiy va Xusrav Dehlaviy ruhoniyatidan madad tilab, “so‘z iqlimi”ga yo‘llab qo‘yishlarini so‘raydi:

Karam aylab ikki qo‘lum qo‘ldangiz,
So‘z iqlimi sori meni yo‘ldangiz.

Shayx Abulhusayn Varroq (q.s.) ul debdurki “...K. afvda uldurki, afv qilg‘andin so‘ngra mujrimning jinoyatin yod qilmag‘aysen”.

N. “M.Q.”da K.ga bag‘ishlab bitgan “Karam va futuvvat tariqida” nomli faslida ham K. qoidasini izohlagan, hayotiy xulosalarni birma-bir ochiqlagan va K. da’vosini qilib lof urgan K.siz

kishilarga qarata o‘zining tanqidiy fikrlarini tanbeh shaklida bayon qilgan: “Karam – bir jafokashning og‘ir yukini ko‘tarmoq va yukni mashaqqatidan uni qutqarmoq. K. – birovning tikanlik yukini ko‘tarmoq va tikan sanchilishidan guldek ochilmoq va shu qilgan ishi haqida qayta og‘iz ochmaslik. Hech qachon minnat qilmaslik va aslo yuziga solmaslikdir”. Yoki “K. “kof”in go‘yiyo kimyo ibtidosidin olibdurlar va “ro” sin simurg‘ arosidin va “mim”ni xo‘blar og‘zin tutubturlar. Bu javharni olam ahlidin tilamak quyoshni zarradin tilamakdur va falakni suhodin istamak”.

N. “M.Q.”ning keyingi faslini ham mazmunan K. tushunchasiga tegishli bo‘lgan muruvvat tushunchasi b-n mantiqan bog‘lashga harakat qilib, “Muruvvat” faslida “Ma’dumlukda muruvvat K.ning urug‘ – qayoshidur, balki tav’amon qarindoshidur” deb bitishi N.ga xos uslubga xosdir. N. asarlarida K. b-n birikkan so‘zlar yangi-yangi ma’nolar tashiydi: Abri K. – K. buluti; ahli K. – qo‘li ochiq kishilar; bahri K. – qimmat va marhamat daryosi; karim – K.li, saxiy, oliyjanob (muannasda: karima); karimxilqat – zoti yaxshi; karimi Mutaol – marhamatli ulug‘ (zot), Alloh; karim ul-axloq, karim ul-xulq – oliyjanob axloqli, xulqlari yaxshi, xushxulq; sohibkaram – saxiy, oliyjanob, marhamatli; K. aylamak – yaxshilik qilmoq va h.k.

N. ulug‘ insonlarga bergan ta’rif va tavsiflarida ham ulardagi K.lilik fazilatiga alohida diqqat qilgan. Jumladan, “M.N.”da Husayn Boyqaroning “masal tavrida”da aytgan ushbu matla’sini maqtab, misol keltiradi:

Men halok o‘ldum g‘amingdin sen
quyoshsen, ey sanam,
Ayb emas gar mendin o‘lsa kamlig-u
sendin karam.

Mazkur tazkiraning 7-bobini adabiyot va san’atga, madaniyatga, ilm-fanga katta e’tibor qaratgan, o‘zlari ham she’r yozgan temuriylarga bag‘ishlagan shoir temuriy hukmdor Abulqosim Boburdagi K.lilik fazilatining yuksak bo‘lganligi haqida quyidagicha xabar yozgan: “Bobur Mirzo – darveshvash va foniy sifat va K. ul-axloq kishi erdi. Himmati ollida oltunning dahi kumushning tosh va tufrog‘cha hisobi yo‘q erdi”.

Lekin ulug‘ shoir zamonada K. va K. ahlining kam topilishini kinoya b-n ta’kidlab o‘tadi. Sohibi K.lik va saxiylikda ham yetuk inson sifatida tarix zarvaraqlarida sharafli nom qoldirgan N. nazmiy va nasriy asarlarida K. tushunchasi haqida bir-biridan mazmunli talqinlar bitgan hamda insoniyatni K.li, saxovatli, muruvvatli bo‘lishga chaqirgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик, 3-жилд. – Т., 2011; Навоий асарлари луғати. – Т., 1972; Ҳусайн Воиз Кошифий. Ахлоқи муҳсиний. – Т., 2010; Ражабова Б. Карам фазилатининг мумтоз талқини. Боқий васиятномалар. – Т., 2022.*

S.R.

KARIMOV AHMAD (1937–2006, Toshkent) – f.f.n., dotsent. 1973-y. “Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” asari leksik-semantik va stilistik xususiyatlari” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan. Tanqidiy matn asosida bajarilgan ushbu ishda dostondagi so‘zlar kelib chiqishi jihatdan turkiy, arabiy, forsiy ekani ko‘rsatilgan. Ular mavzu guruhlariga bo‘lib o‘rganilgan. Ishda tillararo omonim, sinonim, antonimlarga keng o‘rin berilgan: turkiy-turkiy (kecha-oqshom), forscha-forscha (sangboron-sangsor), arabcha-arabcha (furqat-firoq), o‘zbekcha-forscha (qo‘l-dast), o‘zbekcha-arabcha (tengiz-bahr), forscha-arabcha (noshod-mahzun), o‘zbekcha-forscha-arabcha (kishi-mardum-inson-bashar).

Shuningdek, so‘zlarning majoziy ma’nolariga ham alohida e’tibor berilgan. Shoir inju ma’nosidagi gavhar so‘zini quyidagi ma’nolarda ishlatgan: a) aybsiz: Tili durposh, o‘zi pokiza gavhar; b) chuqur ma’noli so‘z: Hadis o‘rniga gavhar sochqay oxir; v) mahbuba: Aningdek bir samin

gavhar so‘ratib; g) avlod-ajdod: Dedi: avval najod-u gavharing de; d) farzand: Agarchi aqdi zavj aylab maqarrar, Bo‘lub erdi anga gavhar muyassar. Shoirning iyhom, tasbe’, tarse badiiy san’atlaridan foydalanish mahorati ham ko‘rsatilgan.

K.A. o‘z ilmiy faoliyati davomida N. tili bo‘yicha ko‘plab maqola e’lon qilgan.

Ad.: *Каримов А. Лексико-семантические и стилистические особенности языка поэмы “Фархад и Ширин” Алишера Навои. Автореф. дисс. канд. филол. наук – Т., 1973.*

E.U.

KARIMOVA Zarifa G‘ulomovna (1944, Toshkent) – san’atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent. U san’atshunoslik fanlari d-ri, prof. T.S.Vizgo rahbarligida “Alisher Navoiy musiqa san’atida” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan (1974). Shu yili olimaning “Навои в музыке” monografiyasi yosh musiqashunoslar ilmiy ishlari tanlovida g‘olib sifatida mukofotlangan. 1980-y.da esa Moskvada nashr qilingan. Kitobning to‘liq nusxasi 1988-y. G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyotida chop etilgan. Asar N. va musiqa masalasi hamda muammosi yuzasidan yozilgan ilk ilmiy tadqiqotlardan biri sifatida mutaxassislarning diqqat-e’tiborini jalb qilgan.

Ad.: *Каримова З. “Навои в музыке” – Т., 1988.*

B.R.

KARIMOVA Farida Isaqovna (1959, Namangan) – adabiyotshunos olim, f.f. d-ri. K.F.I. prof. A.Hayitmetov rahbarligida “O‘zbek adabiyotida debocha (Alisher Navoiy debochalari misolida)” mavzusida nomzodlik (1993), prof. M. Asadov ilmiy maslahatchiligida “Sharq adabiyotida debocha va uning poetikasi” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Respublika va xalqaro miqyosda yuzdan ortiq maqolasi chop etilgan. Uning “O‘zbek adabiyotida debocha” (2008) monografiyasi, “Alisher Navoiy debochalari adabiy manba sifatida” (2000), “Navoiydan keyingi davrda yaratilgan debochalar” (2007), “Ziyoviddin Mansur she’riyati” (2018), “Xamsa” va milliy qadriyatlarimiz” (2019) risolalari, “O‘zbek adabiyotshunosligining muhim masalalari” (2016), “Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonini interfaol usullar asosida o‘rganish” (2019) o‘quv-uslubiy qo‘llanmalari nashr qilingan.

K.F.I.ning nomzodlik dissertatsiyasida o‘zbek adabiyotidagi debochalarning yuzaga kelishi va tarixiy taraqqiyoti masalasi N. devonlariga yozilgan debochalar misolida o‘rganilgan. Ma’lumki, debocha devonlarga yoziladigan lirik muqaddima bo‘lib, shoir hayoti va ijodini, ular yashagan davr tarixini o‘rganishda eng muhim va ishonchli manbalardan biridir. Tadqiqotda o‘zbek adabiyotida debochalarning vujudga kelish tarixi, o‘zbek adabiyotidagi dastlabki debochalar ijodkori bo‘lgan N.ning “B.B.” va “X.M.” devonlariga yozilgan debochalar va ularning o‘ziga xos xususiyatlari, debochalarning yaratilish tarixi, shoir va Husayn Boyqaro munosabatlari, shoirning tarjimayi holiga oid chizgilar, devon tuzish tamoyillari va bu sohadagi N.ning yangiligi, ustoz va zamondosh shoirlar ijodiga munosabati, debochalarning ilmiy ahamiyati, kompozitsion-uslubiy xususiyatlari, debochada saj’ san’atining o‘rni, badiiy tasvir vositalari, debochalarda istifoda etilgan she’riy parchalar badiiyati, N.dan keyingi davrda yaratilgan debochalar va ularning o‘ziga xosligi kabilar tadqiq etilgan.

Xulosada o‘zbek adabiyotida debochalarning paydo bo‘lishi, o‘ziga xos xususiyatlari, debochanavislik tarixida o‘zbek shoirlari, xususan, N. ning o‘rni borasidagi fikrlar umumlashtirilgan.

K.F.I.ning doktorlik dissertatsiyasida Sharq adabiyotida debochaning yuzaga kelish tarixi va rivojlanish qonuniyatlari, konseptual-dasturiy mohiyati, adabiy-kompozitsion xususiyatlari, badiiyati, adabiyotshunoslik obyekti sifatidagi nazariy xususiyatlari, debochanavislik tarixidagi an’ana va o‘ziga xosliklar tahlil qilingan. O‘zbek mumtoz adabiyoti debochanavisligida N. debo-

chalarining tutgan mavqeyi, ularning ilmiy-badiiy qimmati, debochalar kompozitsiyasidagi shoirning badiiy mahorati qiyosiy tahlil imkoniyatlaridan foydalanib ilmiy jihatdan isbotlangan. Navoiydan keyingi davrda yaratilgan debochalarning ilmiy-nazariy hamda amaliy ahamiyati, ularda Navoiy an'analarining ijodiy tarzda davom ettirilishi, biografik manba sifatidagi ahamiyati oydinlashtirilgan.

K.F.I.ning ilmiy tadqiqotlari adabiyotshunoslar tomonidan yuksak baholanadi.

Ad.: *Каримова Ф. Ўзбек адабиётида дебоча. Монография. – Т., 2008; Каримова Ф. Алишер Навоий дебочалари адабий манба сифатида. Рисола. – Наманган: 2000; Каримова Ф. Навоийдан кейинги даврда яратилган дебочалар. Рисола. – Наманган, 2007; Каримова Ф. Навоий ва Огаҳий дебочалари // Ўзбек тили ва адабиёти, 2010, 3-сон; Алишер Навоий дебочаларидаги рубоийлар хусусида. // Тил ва адабиёт таълими, 2011, 1-сон; Алишер Навоий дебочаларида бадиий тасвир воситалари. // Ўзбек тили ва адабиёти, 2014, 4-сон; Каримова Ф. "Хазойин ул-маоний"да Ҳусайн Бойқаро таърифи. // Ўзбек тили ва адабиёти, 2017, 1-сон; Каримова Ф. Навоий ғазалиётининг мавзувий таснифи хусусида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1989, 1-сон; Karimova F. Praises about Hussein Boykaro in Alisher Navoi's "Khazoin ul-maoniy" collection. // The American Journal of interdisciplinary Innovations and Research, 2020, 2(12); Karimova F. Sharq adabiyotida debocha va uning poetikasi: filol.fan. dok…diss. – Farg'ona, 2023.*

H.A.

KARASHMA (f.) – noz, ishva, ko'z va qosh orqali ishora qilish. Tasavvufda Haqning solikni o'ziga jazb etadigan lutf-u marhamatlari, iltifoti. M-n, N. quyidagi baytida "Ul qanday ko'zki, noz-u karashma qadahidan xumor bo'lsa – ofat, mast bo'lsa – balo", – deb mubolag'a qilish b-n ma'shuqaning nozli nigohi oshiq boshiga soladigan savdolarga ishora qiladi:

Ul ne ko'zdurkim, erur noz-u
karashma jomidin
Bo'lsa maxmur – ofat,
ammo bo'lmog'i usruk – balo.

"L.M." dostonining ishq dashtining tasviriga bag'ishlangan 9-bobida zulmat tunda chaqmoq chaqib, atrof yorishib ketishini Laylining K. b-n zulfini surib, yuzini ochishiga tashbeh etadi:

Gah Shom uza chatri bemadoro,
Subh aylabon anda oshkoro.

Andoqki qilib karashma mayli,
Zulf ichra jamolin ochsa Layli.

Sekrir edi ul choqin payopay,
Andin ko'runub qabila-vu hay.

Ad.: *Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва таъбироти ирфоний. – Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.); Истилоҳоти сўфиён. – Теҳрон. 1388 (ҳ.-ш.); Абдуллаев А. Тасаввуф ва унинг намояндалари. – Т., 2009.*

Z.R.

KAROMAT (ar.) – ikrom, sharaf, karam, lutf va ehson demak. K. – payg'ambarlik da'vosidan yiroq bo'lgan odamda favqulodda holatning zuhurlanishi yoki ruhiy tajriba b-n bog'liq hayratlanarli voqea-hodisalarning sodir bo'lishi. K. ikkiga bo'lingan: birinchisi-karomati kunniya. Ikkinchisi – karomati ilmiya. Bular "kavniy va haqiqiy", "ma'naviy va haqiqiy" – deb ham atalgan. Kavniy K.lar – qisqa fursatlarda ro'y beradigan bag'oyat g'ayritabiiy hodisalar. M-n: havoda uchmoq, dengizda yurmoq, insonning qush yoki boshqa jonzotga aylanishi, qushga o'xshab parvoz qilishi shular jumlasidandir. Tasavvufga doir manbalarda bunday K.lar ko'p naql etilib qoldirilgan va ulardan aksariyatining zamirida karomatfurushlik yotadi. Haqiqiy K. esa – ilm,

irfon, ma’rifat, ibodat, axloq va insonlikdagi ustunlik va shu ustunlikdan yuzaga kelgan turli shakllardagi hodisotlar. Tasavvuf ahlining e’tiqodiga ko‘ra, asl K. – karomati ilmiya hisoblanib, birinchi xil K.larga ular ishtiboh b-n qarashgan. Abu Yazid Bistomiyga “Falon odam bir kechada Makkaga yetib borur”, – deyishganda, u “Shayton ham bir soatda Mashriqdan Mag‘ribga yetib boradi, lekin u Alloh la’natiga yo‘liqqandir”, – degan ekan. Yoki Abusayid Abdul Xayrga: “Falon kimsa havoda parvoz qilur” deganlarida, u “Chivin va ko‘rshapalak ham havoda uchadi”, deb javob qaytargan ekan.

K. N. ijodiyotida juda muhim o‘rin egallaydi. Buning asosiy dalili “N.M.” kitobida yuzlab K.larning naql etilganidir. Ularning aksariyatida Mavlono Jaloliddin Rumiyning “Karomat shunday bo‘lmog‘i kerakki, seni yomon holdan yuksak holatga yetkazsin. Ul joydan bul joyga safar qilki, jahldan aqlga, jonsiz tabiatdan hayotga yetishgil”, degan so‘zlarining u yoxud bu tarzdagi tasdig‘ini ko‘rish mumkin. N. ham axloq go‘zalligi, irfon teranligi, basirat ochiqligidan tug‘ilib, inson ruhi va ko‘ngliga ta’sir o‘tkazadigan K.ni haqiqiy K. deb hisoblagan.

Nabi shar’ig‘a topmoq istiqomat
Erur solikka mushkilrok karomat.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд – Т., 2011.*

I.H.

KASRAT (ar.) – ko‘plik, ko‘pchilik, mo‘llik, kenglik. Tasavvuf adabiyotida Allohdan boshqa hamma narsa K. deyilgan. N. “H.A.” dostoni munojotlarida Xudo koinotdagi barcha narsalarni hikmat b-n, bir-biriga mutanosib, uyg‘un va o‘zaro bog‘liqlikda yaratganini va bu yaratiqlar uning borligi, birligi, tasdig‘i va dalili ekanini balog‘at-u fasohat b-n bayon etadi. Bunday bayon tarzi tasavvufda Vahdatda K. – K.da vahdat deb ataladi. Ya’ni birlikda ko‘plik – ko‘plikda birlik. Vahdat ahliga ko‘ra, vahdat – haqiqat, K. xayoldir. Bitta bo‘lgan borliqning ko‘p bo‘lib ko‘rinishi aslida birning o‘ziga xos ko‘rinish shaklidir. Haq soliklari ko‘plikda birlikni ko‘rganlar. N. tazod san’atini qo‘llab, g‘azallarida vahdat va K. atamalari orqali ishqiy tuyg‘ularini va botiniy, irfoniy g‘amlarini ifodalagan. Quyidagi baytda may (ilohiy ishq) vahdat timsoli, ko‘ngildan kechayotgan turli shubhalar, xavotirlar esa kasrat timsolini anglatib kelgan:

Va lek ahli haqiqatqa may erur vahdat,
G‘am ushbu kasrat erurkim,
qilur ko‘ngulga xutur.

So‘fiy shoirlar “g‘ayr”, “sivo”, “yolg‘on”, “ag‘yor” kabi atamalarni ham “kasrat”, “mosivo” ma’nolarida tatbiq qilganlar. Vahdat (birlik) ummon, kasrat (ko‘plik) uning to‘lqinlaridir. So‘fiylar, umuman, borliqning bir butun, yaxlit bo‘lganini, K. (ko‘plik)ning tasavvurdagina mavjudligini anglatish u-n dengiz misolini qo‘llaydilar. Shu bois Allohdan boshqa hamma narsa K. deyilgan. K. ma’nosidagi “mosivo”, “mosivalloh” so‘zlari ham N. g‘azallarida bot-bot uchrab turadi:

Ey Navoiy, faqr aro qil mosivalloh daf’ikim,
Keldi solik boshig‘a dunyo-vu mofiho balo.

K. dar vahdat – vahdatdagi K. bo‘lib, ilohiy tajalliyning shu’lalarini bildiradi. Ayrim oriflarning aytishicha, zohiriy martabalar bosqichida Haq zoti o‘z ismlari va sifatlarini tajalliy qildirish maqsadida kasrat libosiga burkanadi. Shuningdek, vahdatdagi K. bu ko‘pchilikning jamlanishi va bir butunni ifoda etishidir.

N. “L.T.”da ramz-u majoz yo‘li b-n soliklarni dunyo qushlariga, Semurg‘ni izlab, yo‘lga tushgan qushlarning yo‘lboshchisi bo‘lgan Hudhudni esa tariqat piriga nisbat beradi. Uning aqidasiga ko‘ra, soliklar vahdatga yetish uchun 7 vodiy – talab, ishq, ma’rifat, istig‘no, tavhid, hayrat va faqr-u fano vodiylarini bosib o‘tishlariga to‘g‘ri

keladi. Chunki ular tasavvuf ma’rifatining asosiy bosqichlari hisoblanadi. Soliklar (30 qush) orzu qilgan maqsadlariga yetishganlaridan keyin Haq va xalq, vahdat va kasrat bir narsa ekanligini anglab yetadilar. Shu o‘rinda N. “man araf...”, ya’ni “Man arafa nafsahu faqad arafa Rabbahu” – “Kim o‘z nafsini tanisa, albatta, Rabbisini taniydi”, hadisining sirri ochildi, deydi.

Kim qilib Simurg‘ o‘ttuz qush havas,
O‘zlarin ko‘rdilar ul si murg‘u bas.

Munda zohir bo‘ldi sirri “man araf”,
Kim ko‘rubtur gavhar o‘lmog‘lig‘ sadaf.

Ey ko‘ngul, bu nuktadur qushlar tili,
Ramz-u imo mulkiga tushlar tili...

N. “N.M.”da keltirishicha, “...faqirlardan biri ulug‘ Shayx Shihobuddin Suhravardiy (q.s.) xizmatida bo‘lib, vahdat mushohadasi va fano holatlariga yetib, yuksak zavq topgan edi. Ammo nogahon bir kun yig‘iga tushdi va afsuslandi. Shayx undan bu holat haqida so‘radi. Aytdi: K. tufayli vahdatdan to‘sildim va undan uzoqlashdim. Endi o‘z holatimni topolmayapman. Shayx unga bu holat baqo maqomining boshlanishi, oldingi holatdan a’lo va yuksakroq ekanligini anglatdi va uni xotirjam qildi”. N. asarlarida K. ko‘p, mo‘l va serob ma’nolarida ham tez-tez ko‘zga tashlanadi:

Xilvat talab aylabon zamone,
El kasratidin topib amone.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 3-жилд. Т., 2011; Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик, 4-жилд. – Т., 1985; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва таъбироти ирфони. – Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.).; Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005;*

I.H., Z.R.

KASRI NAFS – mumtoz adabiyotda mavjud uslubiy usullardan biri. N. ijodida ham keng qo‘llanilgan. O‘zini hammadan kam, hammadan yomon deb hisoblash, boshdan-oyoq gunoh va qusurlarga to‘la, ojiz va notavon qilib tasvirlash, shuningdek, o‘ziga turli salbiy sifat va xususiyatlarni, telbalik, rasvolik, devonalik, junun va h.k. larni nisbat berish bu usulning mohiyatini tashkil etadi. K.N. adabiyotda davr an’analari, etiketi, axloqi ta’sirida yuzaga kelgan va rivojlangan uslubiy hodisadir. Shuningdek, uning bu qadar ommalashuvi va adabiyotda keng qo‘llanishida tasavvuf g‘oyalari, tariqat odobi, diniy-irfoniy tushunchalarning ham muayyan ta’siri bo‘lgan.

N. o‘z lirikasida ham, dostonlari va nasriy ijodida ham ushbu usuldan mahorat bilan foydalangan. M-n, quyidagi baytlarda u o‘ziga gunoh--u zalolatni, rasvolikni nisbat beradi:

Lutfung rafiqim o‘lmasa, ne hadki,
yetkamen,
Boshtin-ayoq gunoh-u zalolat bila senga.

O‘yla rasvomen, ko‘y-u ko‘chada
holim ko‘rub,
Ba’zi el giryon-u ba’zi xalq
xandondur menga.

K.N.ning go‘zal namunalarini N.ning epik asarlarida ham uchratish mumkin. Jumladan, “H.A.” dostonida shoir o‘z salaflari bo‘lgan buyuk Sharq adiblari haqida yozar ekan, ularni “ahli joh”, o‘zini esa ulardan panoh va madad istagan va shu orqali qadr topishiga umid qilgan muflis deb ataydi, ularni va asarlarini mushkka, la’lga, gullarga, atlas va qimmatbaho matolarga, o‘zini va yozganlarini esa o‘tinga, tikanga, teriga, tuproqqa o‘xshatadi. N. asarlarida kasri nafs ko‘pincha tazod vositasida qo‘llanadi, shuningdek, muallif K.N.ni izohlashda it obrazidan foydalanadi va o‘zini itga qiyos qiladi.

“M.”da N. ham bu usulga ko‘p murojat qiladi. Undagi maktublarda muallif o‘zini xoksor, tiyraro‘zgor, bee’tibor, notavon, bechora singari

sifatlar bilan tilga olganini ko‘rish mumkin: “bu faqiri xoksor va bu xokivashi bee’tiborkim, bu davlatlig‘ eshik ostonasig‘a tufrog‘dek tushub erdim...”. Yoki: “Hidoyat nuridinkim... xilvatingiz munavvar bo‘lub, partavi andin bu tiyraro‘zgorning zalolatangiz avqotig‘a tushsun...”

“H.P.M.” asarida N. o‘zini “Xudroy va besarupoy, oshuftasori parishon ro‘zgor” deb ta’riflaydi va o‘zidek kishi bilan qirq yil davomida do‘st bo‘lib kela olgani uchun Pahlavonni alqaydi: “Mundin o‘tmaski, qirq yil bir meningdek xudroy, oshuftasori parishonro‘zgor kishi bila musohiblik qilg‘aykim, xotirg‘a kelmaski, hargiz andin xotirg‘a g‘ubore o‘lturmish bo‘lg‘ay va ko‘ngulga yetmaski, hargiz andin ko‘ngulga ozore yetmish bo‘lg‘ay”.

N. asarlarining badiiyatini ta’minlashda K.N. usulining ham o‘ziga xos o‘rni bor.

Ad.: *Алишер Навоий, Ғаройиб ус-сиғар. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Муншаот. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ҳолоти Паҳлавон Муҳаммад. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Эргашев Қ. Навоий ижодида касри нафс // ЎТА, 2001, 5-сон; Эргашев Қ. Ўзбек насрида иншо. – Т., 2011.*

Q.E.

KARIMJON IBN RAHIMJON – XIX asr Qo‘qon xattotlik maktabining vakili. Butun faoliyatini N. asarlarini ko‘chirishga bag‘ishlagan. U ko‘chirgan qo‘lyozmalardan “X.”ning uch nusxasi yetib kelgan. Abu Rayhon Beruniy nomidagi ShI. Inv. № 1997. 276-varaq. 1273/1836–37-yy. 2. Qo‘qon Adabiyot muzeyi. Inv. 6664. 275-varaq. 1273/1856–57-yy. 3. – T., Abu Rayhon Beruniy nomidagi ShI. Inv. № 13126. 273-varaq. 1297/1879–80-yy. “X.”ning Qo‘qon Adabiyot muzeyi nusxasi oxiridagi – 2750 varaqda kotib o‘zi haqidagi ma’lumotni va kitobat tarixini keltiradi.

Ad.: *Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. – Т., 1991; Собрание восточных рукописей академии наук Узбекистан. VII. – Т., 1964.*

Muh.A.

KARIMOV Usmon (1934, O‘zbekiston – 2012, Dushanbe) – tojik adabiyotshunosi, f.f. d-ri (1988), prof. (1991). K.U. “XVI asrda tojik adabiyoti” (1985) kitobining birinchi bob ilk qismini “Majolis un-nafois” va uning tarjimalari”ga bag‘ishlagan va Nizomuddin Mir Alisher Navoiyning ushbu tazkirasini XVI asr adabiyotini o‘rganishdagi eng muhim manba sifatida e’tirof qilgan (19-32-betlar). Shuningdek, olim “M.N.” asarining Ali Asg‘ar Hikmat tomonidan 1945-y. da Tehronda nashr qilingan . Faxriy Hirotiy va Hakimshoh Qazviniyning fors tilidagi tarjimalari ustida ham tadqiqot olib borib, tarjima va asliyat o‘rtasidagi farqlarni o‘rgandi. K.U. “M.N.”ga tegishli tadqiqotlarining boshqa olimlarnikidan, jumladan, o‘zbek tadqiqotchilaridan ham farqi shundaki, u XVI asrning birinchi yarmida forstojik adabiyotiga tegishli ma’lumotlarni o‘rgangan va mazkur davrda tojik adabiyoti tarixini o‘rganish uchun muhim manba ekanligini isbotlashga uringan. Bundan tashqari, K.U. asarning tuzilishi, tarkibi va mazmuniga ham to‘xtalib, N. tazkirasidan avval yozilgan tazkiralarni qiyoslagan va farqlarini ham o‘rgangan, N.ning tazkiranavislik an’anasidagi yangicha yondashuvlarini ko‘rsatishga erishgan. Olimning fikrlariga ko‘ra, tazkirada N. o‘z davrining yosh shoirlari bilan bir qatorda jamiyatning quyi tabaqasiga tegishli shoirlariga ham alohida ahamiyat bergan. U o‘z xulosalarida N.ni buyuk siyosiy va davlat arbobi sifatida fors, tojik va o‘zbek adabiyoti rivojiga hissa qo‘shganligini alohida e’tirof qiladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Каримов У. Адабиёти тожик дар асри XVI. – Душанбе, 1985; Меҳрнома. Мураттибон: Ражабов К., Қаҳҳоров М., Абдулазизова С. – Душанбе: Девештич, 2004. Усмон Карим. Ҳижрий X асрда Форс адабиёти (Ўрта Осиёдаги адабий,*

тарихий манбалар ва адабий йўналишлар. – Теҳрон, 1391ҳ. ш.)

Badr.M., Sh.R.

KASHF (ar. – ochish, topish; kashf etmak, ochmoq, topmoq; Kashfi roz – sir ochish). Tasavvufda his va aql yo‘li b-n idrok etish mumkin bo‘lmagan haqiqatlarni qalb ko‘zi ila ko‘rish; parda ortidagi g‘aybiy xususiyatlar va haqiqiy narsalarni ko‘rib, ularni his qilib, ular siridan voqif bo‘lmoqlik; Ilohiy ilhom; to‘g‘ridan to‘g‘ri, vositachisiz Allohdan olingan bilim. Bu bilim yo ilohiy xitobni eshitish yoki g‘ayb olamini ko‘rish b-n qo‘lga kiritiladi; mukoshafa, badan va his pardasining ko‘tarilishi va ruh olamining tomosha qilinishi. Valilar K. sohiblaridir. K. haqida gapirganda, din ulamolari bir narsani alohida ta’kidlaydilar K. – bu Allohning xos bandalariga xos in’omidir. Shu bois to Yaratganning fazli bo‘lmasa, inson o‘z xohishicha, uni qo‘lga kiritolmaydi.

So‘fiyona manbalarda – K.i nazariy, K.i nuriy, K.i ilohiy, K.i ruhoniy, K.i ma’naviy, K.i mujarrad, K.i muxayyal, K.i xavotir, K.i zamoyir, K.i ahvoli qubur va K.i ahvoli qulub kabi K.lar mavjud. M-n, K.i ahvoli qubur – bir avliyoning dafn etilgan marhumning qabrdagi ahvolidan xabardor bo‘lishi; K.i ahvoli qulub – valiylarning qarshisidagi yoki uzoqdagi odamning qalbidan o‘tayotgan fikrlarini bilib turishi; K.i mujarrad – K. yo‘li b-n ko‘rilgan narsaning aynan ro‘y berishi, xayol va turli andishalarning bunga ta’siri yo‘qligidir.

Ammo haqiqiy valiylar, K. sohiblari o‘z K.u karomotlarini xalqdan yashirganlar, ilohiy sirni hammaga ochmaganlar. Chunki sirni ochish valiyning darajasiga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Ammo ba’zi zaruriy holatlarda oshkor qilingan K. bundan mustasno.

N. “N.M.” tazkirasida mashhur avliyo Boyazid Bistomiyning bu haqdagi so‘zlarini keltiradi: “Ko‘pincha haqiqat (K.u asror) qalbimda qirq kunlab uloqib yuradi. Ularni faqat ikki guvoh: oyat va hadis asosidagina qalbimdan joy olishiga ruxsat beraman”. Abduxoliq G‘ijduvoniy ham o‘z karomotlarini yashirgan. “... Xoja Yusufdin so‘ngra alar (Abduxoliq G‘ijduvoniy) riyozatqa mashg‘ul bo‘ldilar va ahvollarin maxfiy tutar erdilar va alarning valoyati ul yerga yettiki, har vaqt namozda Ka’bag‘a borurlar erdi”.

N. yana yozishicha, shu asarda basralik Shayx Xalaf bin Ali (q.t.) shunday degan ekan: “...bir kun Yahyo Mu’oz suhbatida erdim. Bir kimsaga vajd voqe’ bo‘ldi. Birov Shayxdin so‘rdikim, bu kishiga ne voqe’ bo‘ldi? Shayx dedikim, Tengri so‘zin eshitti, vahdoniyat ko‘nglig‘a K. bo‘ldi va insoniyat sifati mahv bo‘ldi”. Ba’zan nazm ahli bo‘lgan avliyolar o‘zlariga K. bo‘lgan narsalarni yozib qo‘yganlar. N.ning naqliga ko‘ra, Shayx Faxruddin Iroqiy Shayx Zakariyo Mo‘ltoniyning topshirig‘i bilan Bobo Kamol Jandiyning xizmatiga borgan “...va har fath-u K. yoki anga yuzlanur ermish, ani nazm va yo nasr libosida ado qilur va Bobo nazarig‘a yetkurur ermish”. Ba’zan murshidning bir nazari yo biror marhamati bilan muridlarda K. paydo bo‘lgan.

Shayx abu Amr Sarifiniy Bag‘dodga Shayx Abdulqodir Geloniy hazratlarining xizmatiga borib, murid bo‘lganidan keyin u kishi shayx Abu Amr Sarifiniyga qarab, kelajakda Tangri taolo unga Abdulg‘ani bin No‘qta degan bir murid ato qilishi va uning “martabasi ko‘p avliyoullohdin biyikrak” bo‘lib, Tangri taolo u bilan “maloyikaga mufoharat” qilishi haqida bashorat beradi. So‘ngra Abdulqodir Giloniy hazratlari uning boshiga bir bo‘rk kiydiradi. Shunda Abu Amr Sarifiniyning holati o‘zgaradi va aytadiki: “...aning (bo‘rkning) xushlug‘i va sovug‘lug‘i dimog‘img‘a yetti va dimog‘din ko‘ngulga. Malakut manga K. bo‘ldi. Eshittimki, olam va har ne andadur, Haq subhonahu va taolo tasbehin muxtalifa til bila aytadurlar, anvo’yi taqdis bila. Yaqin erdiki, aqlim zoyil bo‘lg‘ay. Shayxning ilgida bir pora momuq erdi, manga urdi, aqlim o‘z holig‘a keldi”.

N. baytlaridan birida soqiy (murshid)ga xitob qilib, bu korgoh (olam)da juda ko‘p narsalar mubham (noaniq) ekanligi, shuning u-n dunyo voqealarini ko‘rsatib turadigan sehrli va afsonaviy “jomi jahonbin” tutishini va ko‘p narsalar K.

bo‘lishini xohlaydi: “Jomi jahonbin”ni o‘z ma’nosida ham majozan ma’rifat to‘la qalb mazmunida ham tushunish mumkin.

Soqiyo, jomi jahonbin tutki, andin kashf etay,
Kim ko‘p ish bu korgah vaz’ida
mubhamdur manga?!

Fano darsidan manfaat topish, asrorlarini K. qilish u-n inson pok va xolis bo‘lishi kerak. Jaloliddin Muhammad ibn Abdurahmon Qazviniy (vafoti, 739/1339)ning balog‘atga oid “Talxis” kitobini o‘qishning foydasi yo‘q. (Mazkur kitob Abu Ya’qub Yusuf Sakkokiyning “Miftoh al-ulum” asarining uchinchi qismiga yozilgan sharhdir). Baytda zohiriy ilm b-n botin ilmini egallab bo‘lmasligiga ishora qilingan.

Qil fano darsi aro o‘zni mulaxxaski, emas
Sud kashfida bu ma’nini o‘qumoq “Talxis”.

“N.M.”da Nizomiy Ganjaviy, Xisrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Sa’diy Sheroziy, Hofiz Sheroziy, Faxruddin Ibrohim Iroqiy, Amir Husayniy, Mahmud Shabustariy, Avhaduddin Kirmoniy va boshqalarning betakror shoir hamda sohibi K. bo‘lganliklari ma’lum bo‘ladi. N. ko‘p o‘rinlarda ulardagi iymon, islom, poklik, go‘zal odob va xolislikni namuna qilib ko‘rsatadiki, bizningcha, ular aynan shu xislatlari b-n ham K. sohibi bo‘lganlar. Ulug‘ shoir ba’zilarining K.ini ochiq e’tirof etadi. Jumladan, ustozi Jomiy haqida yozadi:

Ulki bukun qutbi tariqatdur ul,
Koshifi asrori haqiqatdur ul...

Ko‘rib o‘tilganidek, N. asarlarida kelgan avliyolar va shoirlar K.i haqidagi ma’lumotlar ularning hayoti va dunyoqarashini chuqurroq bilishga asos bo‘ladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10 жилд. – Т., 2011; Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005; Ҳужвирий. Кашф ул-маҳжуб. – Истанбул, 1996.*

S.R.

KAYUMARS – Peshdodiylar sulolasining birinchi vakili hisoblanuvchi afsonaviy personaj. U haqdagi rivoyat “Avesto”da, shuningdek, Beruniy va Tabariy asarlarida keltirilgan hamda Firdavsiy “Shohnoma”sida o‘z badiiy talqinini topgan. K. ismining ma’nosini Sharq adiblari “hayyi notiq” deb izohlaydilar. N. buni “tirigeki, so‘z aytqay” deb o‘girgan. Ayrim tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, bu so‘z aslida “Gavomard” bo‘lib, uning birinchi qismi (gavo) ho‘kiz, ikkinchi qismi (mard) odam, kishi ma’nosini bildiradi. Ya’ni Gavomard – yarim odam, yarim ho‘kiz qiyofasidagi mavjudot bo‘yicha talqinlar ham mavjud. N. “T.M.A.”da yuqoridagi boshqa bir nechta talqinlarni keltirmaydi. Buning sababini izohlab, u shunday yozadi: “Yana dag‘i ko‘p so‘z bor, ammo siqqatdin yiroqroq uchun bitilmadi”. Bu so‘zlar N.ning manbalarga tanqidiy qarashidan guvohlik beradi.

N. “S.I.” dostonining XI bobida peshdodiylar va ularning birinchisi hisoblangan K. haqida so‘z yuritgan va quyidagilarni bitgan:

Vale Peshdod o‘ldi o‘n bir kishi,
Burun saltanat keldi bu qavm ishi.

Alar peshvosi Kayumarsi rod,
Kim, ul qo‘ydi taxt uzra oyini dod.

Tutub gar jahonni asosi aning,
Dad-u vahsh charmi libosi aning.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

Q.E.

KAHKASHON (f. – somon tortuvchilar, tashuvchilar) – bir-biriga juda yaqin va ko‘zga

zo‘rg‘a ko‘rinadigan yulduzlar turkumi. Kechasi osmonga qarasangiz, uzun oq yo‘lga o‘xshab porloq ko‘rinadi. Agar kishi somonni ipga bog‘lab, tuproq bo‘ylab tortsa, to‘kilgan somon parchalari shunday iz qoldiradi. Shuning uchun u K. yo‘li deb ataladi. O‘zbek tilida uni Somon yo‘li deydilar.

K. – Sharq mumtoz adabiyotidagi obrazlardan biri. K. deb aslida noma’lum yulduzlardan tashkil topgan osmondagi yorug‘ oq yo‘lni aytishadi. U o‘tmish she’riyatida uzoq va qo‘l yetmas maqsad va ranj-u mashaqqat ramzi bo‘lib keladi.

Somon oshlig‘ tashig‘an yo‘l nishoni,
Falak yanglig‘ yonida kahkashoni...

Zanjiri junun erur nishoni,
Anduh sipehri kahkashoni.

Ad.: *Фарҳанги забони тожики. Жилд 1. – М., 1969; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик, 2-жилд. – Т., 1983; Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2006; Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. 1-жилд. – Душанбе, 1987; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 2. – Душанбе, 1988.*

E.O.

“KELURNOMA” – Hindistonda, boburiyzoda Avrangzeb hukmronligi davrida Muhammad Yoqub Changiy tomonidan XVII asrda tuzilgan o‘zbekcha-forscha so‘zlik. Lug‘atning kirish qismi fors tilida bo‘lib, shohga bag‘ishlangan, madhiya esa eski o‘zbek tilida yozilgan. “K.” 371 faslni o‘z ichiga olgan 15 bobdan iboratdir. Shundan 14 bobi eski o‘zbek tilining fe’l xususiyatlariga, fe’llarning tuslanishlariga bag‘ishlangan, qolgan bir bobi esa alfavit tartibida bo‘lmasdan, qisqa-qisqa fasllarga bo‘lingan. Asarda o‘zbek tili, xususan, o‘zbek shevalari nuqtayi nazaridan qiziqarli material beruvchi ko‘plab so‘zlar bor. Eski o‘zbek tiliga xos bu so‘zlar mazkur asarda o‘z zamonasi talablariga moslashtirilib, guruhlarga ajratilgan va ma’nosi fors-tojik tilida izohlangan. Shunisi xarakterliki, lug‘at XVII asrda tuzilgan bo‘lsa ham, undagi eski o‘zbek tiliga xos so‘zlarning aksariyati N. asarlarida mavjud bo‘lib, tegishli davrga oid asarlarda ancha ozchilikni tashkil etadi.

M-n, “K.”da “toza, sof, tiniq” ma’nosini beruvchi “arig‘” so‘zining izohida N.ning “F.Sh.” dostonidan quyidagi bayt keltirilgan:

Falak yanglig‘ biyik himmat bu bo‘lg‘ay,
Quyosh yanglig‘ arig‘ niyat bu bo‘lg‘ay.

Bu esa lug‘atning ilmiy-adabiy qimmatini yanada oshirgan. Mazkur misol N. asarlari o‘sha davrlardayoq juda keng jug‘rofiyalarga tarqalib ulgurganini yana bir bor dalillaydi, N. qo‘llagan so‘zlarning miqyosi katta bo‘lganini ko‘rsatadi. Shuningdek, N. asarlari hamma zamonlarda tez-tez o‘qilgani ma’lum bo‘ladi.

Bundan tashqari, “K.” lug‘atining tuzilish mezonlari ko‘zdan kechirilganda, M.Y.Changiy N. asarlariga tuzilgan lug‘atchilik an’analariga, jumladan, N. asarlari uchun tuzilgan Tole Hiraviyning “Badoye’ ul-lug‘at”, muallifi noma’lum “Nisobi Navoiy”larni yaratishda shakllangan qoidalarga amal qilingan.

Ad.: *Мухаммед Якуб Чинги. Келур-наме (староузбекского-таджикско-персидский словарь XVII в.). – Т., 1982; Ҳафизова А. “Келурнома” лексикасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1968. №5.*

E.U.

KEPAK MIRZO (1476–1507) – Sulton Husayn Boyqaroning o‘g‘li, asli ismi – Muhammad Muhsin Mirzo, lekin tarixda Kepak Mirzo nomi bilan mashhur bo‘lgan. Onasi – Latifsulton Og‘acha. Otasining hukmronligi davrida Abivard viloyatida, so‘ng Shayboniy istilosiga qadar Mashhadda hokim bo‘lgan. Mo‘min Mirzo qatl etilgach, otasidan ko‘ngli qolgan. Akasi Abulmuhsin Mirzo bilan birga unga qarshi isyon ko‘-

targan (1498). Uch-to‘rt oy davom qilgan harbiy harakatlardan so‘ng, N.ning ukasi Darvishalibek vositachiligida o‘zaro sulh tuzilgan.

K.M. badiiy ijod bilan shug‘ullanmagan, shuning uchun N. uning nomini “M.N.” tazkirasining yettinchi majlisiga kiritmagan. N. “S.”ning VII bobida unga bag‘ishlab 5 bayt bitgan:

Soqiyo, bodayi gulfom ketur,
Mayi gulrang solib, jom ketur.

Bodakim, ruh dedi ani hakim.
Ruh quti atadi tab’i salim.

Xovaron lolasidek oltun jom,
Kim, anga tushsa bu rohi gulfom.

Hay’at ichra guli ra’no bo‘lg‘ay,
Ichsa shahzoda, muhayyo bo‘lg‘ay.

Jomi to hashr labolab bo‘lsun,
Necha sipqarsa, yano ham to‘lsun.

1507-y.da Mashhadda Kepak Mirzo akasi Abulmuhsin Mirzo bilan Shayboniylarga qarshi jang olib borgan, ammo mag‘lub bo‘lgan. Aka-ukaning boshlari Shayboniyxonga yuborilgan.

K.M. haqida “Boburnoma” va “Habib us-siyar”da ham ma’lumotlar bor.

Ad: *Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 2002.*

Q.E.

KESHLIG‘ OTA – “N.M.” tazkirasida tilga olingan avliyolardan biri. Qadimda turkiy tilli xalqlar og‘zaki va yozma nutqida aziz-u avliyolar, shayxlar, oriflarga nisbatan ota so‘zi qo‘llangan. N.ning o‘zi ham mazkur tazkiraning “Sayid ota” fiqrasida bu haqda “Va turk ulusida ota derlar”, degan alohida tushuntirish bitgan. K.O.ni tazkirada nomlariga ota so‘zi qo‘shib aytilgan 10 nafardan ortiq shayxlar qatorida zikr qilgan va alohida fiqra bitgan: “Samarqandning Kesh otlig‘ mavzeyidindur. Hamono anga yasoq nisbati bor ekandur. Ul taklifdin xotiri ma’lul bo‘lub, Turkistonda Xoja Ahmad Yassaviy mazorig‘a borib, riyozatlar tortib, ishiga kushodlar yetgandur. Andin Chin mulkiga tushub, ul xalq muridi bo‘lib, anda elga peshvo bo‘lubdur va mazori hamul mulkdadur va imorat va mujovirlar mutaayindur”. Fiqradan ma’lum bo‘lishicha, K.O. (shayx) bir iqtisodiy jarima sabab Turkistonga ketadi va Ahmad Yassaviy maqbarasi qoshida ancha zahmat-u zo‘rliklar tortadi. So‘ngra uning ishi yurishib, ota Chinga boradi, u yerdagi musulmonlar uni murshid sifatida tan olishadi va unga murid bo‘lishadi. Natijada esa, K.O. el peshvosiga aylanadi. Uning qabri Chinda bo‘lib, mozori ustiga imorat solingan, alohida mujovir belgilangani ham qayd etilgan.

N. tazkirada K.O.ning inisi Umar ota haqida ham qisqa tarzda fiqra bitgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

B.R.

KIZB (ar. – yolg‘on) – haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan, noto‘g‘ri gap, narsa; uydirma, aldov, nayrang so‘z. K. odamlar hol-xarakterida bo‘lishi mumkin bo‘lgan yomon xislat bo‘lib, rostlik uning ziddi sanaladi. Kazzoblik, yolg‘onchilik diniy tarafdan ham, insoniylik tarafdan ham qoralanadi. Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) dan: “Musulmon odam baxil bo‘lishi mumkinmi?, – deb so‘rashganda, mumkin. Xasis bo‘lishi mumkinmi?, deb so‘rashganda, mumkin. Yolg‘onchi bo‘lishi mumkinmi?, – deb so‘rashganda, “Yo‘q!”, – deb javob bergan ekanlar”.

K. haqida N.ning lirik she’rlari, dostonlari va nasriy asarlarida ko‘plab tasvirlar, hikmatli so‘zlar mavjud bo‘lib, aksariyati K.ning tabiati, kishilarga yetkazadigan zarari, bu illatga yaqin kelmaslik haqida ogohlantiruvchi jumlalardir. Jumladan, “G‘.S.”dan o‘rin olgan 13-ruboiyda uchraydigan K. tasviri o‘ziga xoslik kasb etgan.

Bir aybg‘a garchi xalq qilg‘ay mansub,
Faqr ahlidin iztirob emastur mahsub.

Sidq ersa xud etmak kerak o‘z fe’lini xo‘b
Kizb ersa, malomat dag‘i bordur matlub.

Agar odamlar biror kimsani biror ayb bilan ayblasalar, u odam faqr ahlidan bo‘lsa, iztirob chekmasligi kerak. Nega? Chunki agar rostdan ham ayblagan bo‘lsalar, fe’lini tuzatishi lozim. Mabodo odamlar yolg‘ondan aybdor qilgan bo‘lsalar, uni malomat qilgan bo‘ladilar. Malomat esa, faqirlikda matlub va marg‘ub hisoblanadi.

“F.K.” devonidan joy olgan “S.”ning so‘nggi boblarida N. o‘z-o‘ziga murojaat etarkan, bu olamda vafo ahli ko‘rmaganini, bir vafoga yuz jafolar chekkanini iztirob bilan yozadi va bu yozg‘irganlarini “qaniydi yolg‘on bo‘lsa?”, – deb umid qiladi:

Da’vi kizb qilib o‘z so‘zuma,
Qiladurmen tuhmat o‘z-o‘zuma.

Foniy olamda hamma narsa jufti bilan yaratilgani singari, K. kalimasi o‘zining ziddi – sidq bilan yonma-yon tasvir etilishi tabiiydir:

Bu so‘zning sidq-u kizbi kov-kovi,
Adab ermas chu sodiq erdi roviy.

Shuningdek, N. asarlarida K. lafzi bilan bog‘liq kizbi mahz – g‘irt yolg‘on, kizb oloyishi – yolg‘on aralash bo‘lganligi singari so‘z birikmalari ham uchraydiki, ular K.ning muayyan darajasini yoki zarar yetkazuvchi sifatini yanada yorqinroq aks ettiradi. Jumladan, yana shu devonda fanodan lof urib, o‘zini elga muhtoj qilib ko‘rsatganlarning bu da’volari g‘irt yolg‘on, ya’ni kizbi mahzdir, deydi shoir.

Fano lofin urub, o‘zni ulusqa aylamak muhtoj,
Bu da’vo ichra kizbi mahz yo himmatdin erkinmu?

Tarixda o‘tgan dovruqli Iskandar haqida doston boshlagan N. sarkarda haqida juda ko‘p ma’lumotlar to‘plaganini, ular orasidan yolg‘on aralashganlarini chiqarib tashlab, to‘g‘rilarini qoldirib, ularni nazmga solib, bezash niyatini ta’kidlaydi:

Judo aylabon kizb oloyishin,
Anga aylasam nazm oroyishin.

Xususan, “H.A.” dostonining “Avvalg‘i hayrati”ida N. payg‘ambarlarni tavsiflar ekan:

Zohir o‘lub borchag‘a sidqi maqol,
Shoyibayi kizbg‘a yo‘q ehtimol

deydi, ya’ni ular (payg‘ambarlar)ning barchasi sodiq va rostgo‘y bo‘lib, yolg‘onga yo‘l berishlari, aslo yolg‘on gapirishlarining ehtimoli ham yo‘q, deydi. N. mazkur asarining 6-maqolatida ta’kidlashicha, adabli, tavozeli, xususan, to‘g‘riso‘z kishining haqiqiy nadomati K.ning yuzini qoraytiradi, ya’ni mahv etadi.

Oh-u nadomatki chekib sidq aro,
Kizb yuzin dudidin aylab qaro.

Kishini halokatga olib boruvchi K.dan nihoyatda ehtiyot bo‘lishi lozim. Chunki, Payg‘ambar (a.s.): “Kazzobuna lo ummati” – Kazzob – yolg‘onchi mening ummatim emas”, mazmunidagi hadisi bilan ummatini rostgo‘ylikka da’vat etgan: N. buni asarda go‘zal tarzda keltiradi: (Oyat bu o‘rinda xabar, belgi, nishona ma’nosida bo‘lsa kerak. Chunki baytdagi mantiq, ma’no shunga ishora qiladi).

Sidq ila urg‘onda salo ummati
Oyati “Kazzobuna lo ummati”.

Hatto N. keskinlik bilan shunday deydi:

Kizb keturgan tili yo kilkidin,
Xorij etib o‘zni Rasul silkidin.

Ya’ni kimning qalami yo tilidan yolg‘on kelsa, u o‘zini Rasulning – Payg‘ambarning ummati

safidan chiqaribdi. Shoir keyingi o‘rinlarda esa yolg‘onchilikni o‘ziga shior qilib olgan kimsani er ham, musulmon ham sanamaydi:

Ulki, shior ayladi yolg‘on demak,
Bo‘lmas ani er-u musulmon demak.

Zero, asarda K.ning ofatlari, falokatga sabab bo‘lishi borasida N. donishmandlik b-n hushyorlikka chorlovchi “Sher bilan Durroj” hikoyatini keltiradi.

Mutafakkir shoir K. haqidagi fikrlarini o‘zining “M.Q.” asarida davom ettirib, saj’ usuli ila juda ta’sirchan ifoda etadi. Uning mazkur tanbehi xalq orasida yod bo‘lib ketgan: “Chin so‘zni yolg‘ong‘a chulg‘ama, chin ayta olur tilni yolg‘ong‘a bulg‘ama. Yolg‘onchi kishi emas, yolg‘on aytmoq eranlar ishi emas. Yolg‘on so‘z deguvchini bee’tibor qilur, nechukkim, ul gavharni xazafdek xor qilur. Ulki chin so‘zni yolg‘ong‘a qotar, durri saminni najosatg‘a otar”.

N. boshqa bir tanbehida esa “Tengri do‘stlari sidq-u safo ma’danidur. Yolg‘onchini debdurlarki, Tengri dushmanidur” deydi va quyidagi go‘zal masnaviyni ilova qiladi:

Xiradmand chin so‘zdin o‘zga demas,
Vale bari chin ham degulik emas.

Kishi chin so‘z desa zebo durur,
Necha muxtasar bo‘lsa, avlo durur.

Yuqoridagi baytlarda e’tibor beradigan nozik bir nuqta bor. Ya’ni oqil odam faqat chin so‘zlaydi, lekin hamma chin so‘zni, haq gapni har joyda, har doim aytib bo‘lmaydi. O‘zining mavridi bo‘ladi. Albatta, kishi rost so‘zlasa, juda yaxshi, ammo uni qisqaroq qilsa, yanada yaxshiroq bo‘ladi.

N. she’rdagi yolg‘on haqida ham yozadi: “Yolg‘on so‘z juz nazmda nopisand va aning qoyili noxiradmand”. Bu masalada N. arablar orasida keng tarqalgan “Ahsanuho akzabuho – she’rning eng yaxshisi eng yolg‘oni”, degan maqolidagi fikrni rivojlantirgan bo‘lib, bu o‘rinda “yolg‘on” badiiy to‘qimani, she’riy mubolag‘ani, fantastikani, yorqin istiora va tashbehni anglatishiga urg‘u beradi.

N. “M.Q.”ning 25-faslini “Ahli nujum zikrida” deb nomlaydi va munajjim, rammol (rom ko‘ruvchi)lar haqida so‘z yuritib, ularning nuqsonli amallarini qoralarkan, “Falaki mudavvar va nujum va burjidin afsona der va alarning sa’d va nahsi hukmin surub tarona der. Bovujude ulki, o‘n so‘zidin ittifoqe biri ham rost kelmas, munung qabohatin yo bilmas va yo bilib ko‘ziga ilmas. “Kazib al – munajjimun” (Munajjim (yulduzshunos)lar yolg‘on gapiradilar) mazmuni bila aning so‘zi yolg‘ondur va o‘z rostlig‘ kishvaridin yiroq qolg‘ondur va basirat ko‘ziga g‘aflat pardasin solg‘ondur”, - deya yana bir bor o‘quvchini yolg‘on so‘z ishlatuvchi toifalar makridan ogoh etadi. N. hatto ba’zi avliyolarning rostgo‘ylik sifatini alohida fazilat qilib ko‘rsatadi. Jumladan, u “N.M.” asarida Bobo Tilanchi degan avliyo haqida shunday deydi: “Marv yo‘lida Charkas bandida sokin erdi. Majzub erdi. Ilayida qish va yoz o‘t yoqarlar erdi. Bir siqa (ishonchli) kishi bu toyifadinki, so‘zida shoyibayi kizb (aslo yolg‘on aralashish) yo‘q erdi”.

Ko‘rib o‘tganimizdek, N. yolg‘onchilikni keskin qoralaydi va bu sifatning jamiyat orasida ildiz otishiga qarshi turadi. Shu bois asarlarida K. (yolg‘onchilik)ni hadislar, hikmatli so‘zlar, hikoyatlar, ibratli baytlar orqali fosh qilib tashlaydi. Bunday hikmatlar bir joyga to‘planganda, K.ning mazmun-mohiyati, insoniyatga zarari yanada aniq-tiniq namoyon bo‘lib, yosh avlodni rostgo‘ylik bilan tarbiyalashda qo‘l keladi.

Ad.: *Алишер Навоий. ТАТ. 10 жилдлик, 1-10-жилдлар. – Т.: 2011.; Навоий асарларининг луғати. Тузувчилар: Порсо Шамсиев, С.Иброҳимова. – Т., 1972.*

S.R.

KINOYA (ar. – ishora, piching; pardali gap) – biror shaxs yoki narsa ustidan yashirin kulishdan iborat uslubiy vosita. Badiiy asardagi inkor

usullaridan biri bo‘lib, uning muhim belgisi so‘z yoki gapning hamma vaqt ikki ma’noli bo‘lishida, haqiqiy ma’no uning teskari ma’nosi orqali anglashilishida namoyon bo‘ladi. Atoulloh Husayniy ta’biri bilan aytganda, K.da “bir nimani derlar, lekin andin o‘zga nimani iroda qilurlar”. Ya’ni, “bir ma’noni anga lozim-u tobe’ ma’no uchun yasalg‘an lafz bila ul tarzda tab’ir qilurlarkim, agar ul lafzning o‘z yasog‘in iroda qilsalar ham ravo bo‘lur...”. Uning aytishicha, K. barcha tillardagi nazm-u nasrda mashhur bo‘lib, “tab’din yiroq bo‘lmag‘ani bag‘oyat maqbul bo‘lur”. Bu b-n olim K. odob doirasidagi yengil hazil tariqasida bo‘lib, mazax va haqorat darajasiga borib yetmasligi, beparda gaplarga yo‘l bermaslik lozimligini ta’kidlamoqda.

K. N. ijodidagi faol uslubiy vositalardan. Xususan, dostonlarida, “M.Q.”da, qit’alarida uning o‘tkir namunalarini ko‘ramiz. M-n, “M.Q.”da soxta oshiqlarni obrazli yo‘sinda shunday fosh etadi:

Kishi o‘zin yasag‘on birla bo‘lurmu oshiq,
Subhi kozib yorumas, o‘ylaki subhi sodiq.

Maz.: Yolg‘onchi tong haqiqiy tongdek yorug‘lik taratmagani singari o‘zini oshiq ko‘rsatishga uringan chin oshiq bo‘lolmaydi.

Qator g‘azallarida riyokor va tamagir shayxlarni o‘tkir kinoya tili bilan fosh etadi. M-n, xilvatda qornini to‘yg‘azib olgani holda, o‘zini ro‘zador ko‘rsatib, avomni o‘ziga muxlis qiluvchi firibgar shayxlarning qiyofasini shunday ochib beradi:

To‘q chiqib xilvatdin, o‘zni ro‘za deb, juhholdin
Asru ko‘p nodonni o‘z tavrig‘a shaydo qildi shayx.

Qit’alaridan birida esa birovga yaxshilik qilganning yomonlik ko‘rishi haqida shunday yozadi:

Ne tole’durki, har kimni desam yor,
Manga ul oqibat bo‘lur badandesh.
Biravdur gar ani desam ko‘zumsen,
Chekar mujgon kibi qasdimg‘a yuz nesh.

K. hajviy asarlarda asosiy o‘rin tutadi.

Ad.: *Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъ-ус-санойиъ (А.Рустамов тарж). – Т., 1981; Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Т., 1983; Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2010.*

E.O.

KISRO – sosoniylar tabaqasiga mansub shoh. Madoyin o‘lkasini idora etgan. K. Xusrav Parvezning bobosi. Mazkur obraz Firdavsiyning “Shohnoma”sida maxsus qissa doirasida hikoya qilinadi. N. “F.Sh.” dostonida K.ni bir nechta o‘rinlarda tilga olgan. Avvalo, Xusrav Parvezni o‘quvchiga tanishtirar ekan, uning shajarasi bayonida K.ni xotirga olgan.

Nasabda topibon Kisrog‘a payvand,
Qayu payvand, farzandig‘a farzand.

Baqo mulkiga chun Kisro qo‘yub yuz,
Berib ziynat aning mulkiga Hurmuz...

Rasule qasr-u toqi Kisraviydin,
Ne Kisrokim, bisoti Xusraviydin.

Dostonda sovchilikka kelgan vazir Buzurg Ummidga Shirinning rad javobini yetkazar ekan, Mehinbonu nazokat ila Xusravning hurmatini joyiga qo‘yib, go‘zal istioralar bilan ta’riflayotgan damda ham podshohni K. avlodi ekaniga ishora etadi:

Ki: Ayting bu rasuli kordong‘a,
Ki, desun Xusravi Kisronishong‘a.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т.: 2011; Фирдавсий А. Шоҳнома. – Т., 2011.*

Muh.A.

KIRMONIY (taxallusi; to‘liq ismi: Homid ibn Abufaxr Avhadiddin Kirmoniy (1168, Kirmon − 1236, Bag‘dod) − fors-tojik mutasavvif shoiri. Tahsilini kamolga yetkazgach, Damashq, Bag‘dod kabi musulmon Sharqining ko‘plab shaharlariga sayohat qilib, ulug‘ orif-u donishmandlar suhbatiga yetgan. Shayx Ruknіddin Sinjoniyning xalifasi. Ulkan tasavvuf olimi Muhyiddin ibn Arabiy va darvesh so‘fiy Shamsiddin Tabriziylar bilan uchrashgan, Faxriddin Iroqiy va Avhadiy Marog‘iylar uning shogirdlari hisoblanadi. U fors-tojik irfoniy she’riyatining ustodlaridan sanaladi. Undan 1180 baytli “Misboh ul-arvoh” (“Ruhlar mash’ali”) masnaviysi va 1807 ruboiydan iborat to‘plam bizgacha yetib kelgan.

“N.M.”da “nihoyatda ulug‘ kishi emish, go‘zal she’rlari bor”, deb ta’riflanadi. Tasavvufdagi maqomi haqida esa “derlarki, ul haqiqat shuhudida mazohir suratig‘a tavassul qilg‘on ekondur va mutlaq jamolin muqayyadot suvarida mushohada qilur ermish” deyiladi. “M.Q.”da uni N. “haqiqat asroriga majoz tariqin” omuxta qilgan shoirlar guruhiga kiritadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9 жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10 жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988; Ҳомидий Ҳ. Тасаввуф алломалари. – Т., 2004; Авҳадиддин Кирмоний. Девони рубоиёт. – Теҳрон, 1366 (ҳ.-ш.); Авҳадиддин Кирмоний. Рубоийлар // Донишмандлар туҳфаси. – Т., 2009.*

E.O.

KITOBAT (ar. – yozuv, yozish) − inson a’zolari va arab yozuvidagi harflar o‘rtasidagi o‘zaro o‘xshashlik asosida tashbeh yaratishga asoslangan san’at. Aytaylik, ma’shuqaning kelishgan tik qomati ***“alif”*** (ا)ga, uzun sochlari ***“lom”*** (ل)ga, xalqa zulfi, ***“jim”*** (ج)ga, qayrilma qoshlari ***“nun”*** (ن)ga, ***“yo”*** (ى)ga, marjonday tizilgan tishlari ***“sin”*** (س)ga, ko‘zlari ***“sod”*** (ص)ga, ***“ayn”*** (ع)ga, xoli nuqtaga, oshiqning uning hajrida bukilgan qaddi ***“dol”*** (د)ga, ***“nun”*** (ن)ga o‘xshatiladi va h.k.

K. san’atini qo‘llashdan maqsad fikrni obrazli va go‘zal tarzda ifodalash orqali badiiy ta’sirchanlikka erishishdir. Chunonchi:

Kulma xam qaddimg‘akim, yuklansa
ishqing Qof aro,
Ishq ostida yozilg‘an “qofdek” xam topqasen.

Bu yerda oshiqning ishq yukidan egilgan qaddi ***“qof”***ga (ق) o‘xshatilyapti. “Ishq yukini Qof tog‘iga yuklasa, u ham “ishq” so‘zi ostidagi qofdek bukilib qoladi (arab yozuvida qof harfi ishq so‘zining oxirida, ya’nikim ostida keladi − عشق). Shunday ekan, mening ishq yuki ostida egilib, qof shakliga kelgan qaddimga qarab kulma”, − deydi oshig‘i bechora. Agar bu fikr oddiy, to‘g‘ridan to‘g‘ri aytilsa, bunchalik badiiyat kasb etmas edi.

Ko‘rmasang qoshing bo‘lurman
turg‘anim birla fig‘on,
Voyi erur, bas chu bo‘lmasa
“Navoiy” birla “nun”.

N. so‘zidan ***“nun”*** tushib qolsa, voyi qoladi − bu oh-voh degani. Shunga o‘xshab, qoshingni ko‘rmasam, ishim boshdan-oyoq fig‘on bo‘ladi. Bu yerda qayrilmaligi jihatidan ***“nun”***ning qoshga nisbati bor, “fig‘on”ning esa “voyi”ga.

Ayon bo‘ladiki, shoir seni ko‘rmasam, ishim oh-u fig‘on bo‘ladi, degan fikrni arab harflari qanday go‘zal shaklda ifodalamoqda:

Oraz uzra “ayn” yanglig‘dur uzoring
uzra ko‘z,
Nargis uzra nuqta yanglig‘dur ko‘zung
ustida xol.
No‘shxand etkanda, la’lingdin
ko‘runmishmu tishing,
Anglamon, yoxud asal ichra
yozilg‘an “sin”mudur.

Sharq she’riyatida K. san’atiga asoslangan bayt-u she’rlar behad-u bepoyon. Shoirlar yan-

gidan yangi ko‘rinishlarini kashf etib, bu san’atning imkoniyat doirasini kengaytirganlar. N. ijodida ham uning rang-barang shakldagi ko‘plab namunalariga duch kelamiz. Bu san’at shoirdan qanchalik mahorat talab qilsa, o‘quvchidan shunchalik zukkolikni taqozo etadi. Arab yozuvi va K. san’atini bilmaganlar esa bunday estetik zavqdan bebahra qoladilar.

Ad.: *Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Т., 2001.*

E.O.

“KITOBI LUG‘ATI ATROKIYA” – N. asarlari bo‘yicha tuzilgan lug‘atlar ichida Fath Alixonning “K.L.A.” asari alohida ajralib turadi. Bu lug‘at Sankt-Peterburg dorilfununi kutubxonasida saqlanmoqda. Uni sharqshunos A.A.Romaskevich – Tehrondan 1914-y. olib kelgan. 1862-y. da yozib tugallangan ushbu lug‘at N. asarlariga qiziqish natijasida tuzilgan. Unda shoir asarlaridagi 8000 ga yaqin o‘zbekcha so‘zlar fors tilida izohlangan.

Lug‘atda ismlar bosh kelishikda berilgan:

قایوق – (265b) ba zamma yo zavraqi ko‘chak...

qayuq – yo zammali, [forscha] zavraqi ko‘chak...

Ayrim so‘zlar lug‘atchilik an’anasiga zid ravishda turli shakllarda izohlangan:

بوریکا –(103b) ba zamma boyi abjad va kasri royi qarashat gurg ro go‘yand ya’ni ba gurg

bo‘riga – ***b*** zammali, ***r*** kasrali, [forscha] gurg, ya’ni ba gurg

Qomusda boshqa turkumlarga oid so‘zlar ham uchraydi:

olmosh:

سیز – (244b) ba kasri avval ya’ni shimo...

siz – boshida i, [forscha] shimo...

sifat:

قوزای (284a) ba zammi avval va zoyi nuqtador ba alifi kashida joyi soyaki oftob nakird.

quza:y – ***q*** zammali, ***z*** nuqtali, alif cho‘ziq, forscha joyi soyaki oftob nakird.

ravish:

قاشیدا – (258a) ba kasri shini qarashat ya’ni dar peshro‘yi u muqobili u...

qashida – ***sh*** kasrali [forscha] dar peshro‘yi u...

Fe’llar turli shakllarda berilgan. Masdar shaklda:

قاومق –(262b) davondan va dur kardan...

qavmaq [forscha] davondan va dur kardan (uzoqlashtirmoq)...

buyruq shaklda:

قاوما – (258a) ba sukuni vov amrist az ronda nakardan...

qavma – vov ustida sukun [forscha] az ronda nakardan fe’lining buyruq shakli...

قولانگ (272a) ba sukuni vov va nun va kofi porsiy ya’ni bagurizonid va badavonid...

Qavlang – vov va nun ustida sukun, ***k*** forsiy (ya’ni g) forscha bigurizonid va bidavonid...

قاوای (272b) medavonam va ronda mekunam

qavay – forscha medavonam va ronda mekunam.

Lug‘atda ravishlar ham izohlangan:

قایفوروب – (259b) qofi ba alifi kashida va ba yo rasida va zamma g‘ayni nuktador va royi qarashat ya’ni g‘amnok...

qa:yg‘urub – ***q*** cho‘ziq ***a:*** b-n, so‘ngra ***y***, nuqtali ***g‘*** va ***r*** zamma b-n [forscha] g‘amnok...

Fatx Alixon lug‘atda tarixiy-geografik toponimlarni ham izohlagan:

قراکول – (275a) ba fathi avval va kofi porsiy mavzusi az Movaraunnahr...

Qarago‘l – boshida fatha, forscha ***k*** (ya’ni ***g***) Movaraunnahrdagi bir joy...

بوخارا (107a) ba zamma boyi abjad ismi shahrist ma’ruf...

Buhar ***a-b*** zammali, mashhur shahar ismi...

Lug‘atda o‘zbekcha so‘zlardan tashqari mo‘g‘ulcha so‘zlar ham izohlangan:

اوبوجین (56b) – ba zammi avval va boyi abjad va kasri jimi abjad ba lug‘ati mug‘uli xasta va bemorro go‘yand

ubujin – boshida ***u***, so‘ng ***b, j*** kasrali, mug‘ulcha so‘z ma’nosi xasta va bemor

So‘z variantlari yonma-yon berilgan:

قارا و قرا – (274a) bama'ni siyoh...

qara va qora - [forscha] siyoh...

قنوق و قوناق – (278b) ba zamma avval va nun va fathi qofi digar ba alifi kashida bama'ni mehmon...

qo'nuq va qo'naq – boshida zamma va nun, ikkinchi qof cho'ziq a: b-n [forscha] mehmon...

So'zlar asosan ekvivalent yo'li b-n izohlangan:

ایکارجی – (80a) ba kasri avval va kofi porsiy ba alifi kashida va royi qarashat rasida va kasri jimi porsiy ba ma'niyi sarroj

iga:rchi – boshida ***i***, so'ng forsiy ***k*** (ya'ni g) cho'ziq ***a: b*** b-n, so'ng ***r***, forsiy ***j*** (ya'ni ch) kasrali [forscha] sarroj

Ayrim so'zlar tushuntirish yo'li b-n sharhlangan:

ایکیز – (70b) ba fathi avval va kasri kofi toziy du bachaki yak daf'a tavallud shud

ekiz – boshida ***e***, arabiy ***k*** kasrali [forscha] du bachaki yak daf'a tavallud shud

So'zlar, asosan, bir ma'nosi bilan izohlangan:

اوماق – (64a) ba zammi avval ba ma'niyi qabila...

umaq – boshida u [forscha] qabila...

آری – (23a) ba kasri royi qarashat zambur

a:ri – ***r*** kasrali [forscha] zambur

Ayrim joylarda so'zning boshqa ma'nolari ham qayd qilingan:

قراول – (276b) ba fathi avval va zammi vov diydabonro go'yand va niz toifa az arab

qaravul – boshida ***a,*** vov zammali [forscha] diydabon yana arab toifalaridan biri

شاب (248a) ba shini qarashat ba alifi kashida va ba boyi abjad rasida javon va johilro go'yand...

sha: ***b-sh*** cho'ziq ***a*** b-n, oxirida ***b,*** forscha javon (yosh) va johil (1.yosh; 2.nodon)

Fath Alixon so'z ma'nolarini izohlashda tasdiqlovchi misol sifatida bir bayt keltiradi:

اویناتای (61a) – ba fathi avval va sukuni yo va nun ba alifi kashida ya'ni ba raqs biyovaram dar chahor devon go'yand:

Ul parivash tifl maktabdin toriqmish piri dayr
Qo'yki bir dam ani majnunluqlar aylab o'ynatay

o'yna:tay – boshida ***o', y*** va ***n*** ustida sukun [forscha] ba raqs biyovaram "Chor devon"da shunday deyilgan...

Dostonlardan olingan ayrim misollargina ikki, to'rt misradan iborat:

اوی قیزی (62b) – ba fathi avval va kasri zoyi nuktador xodima va kaniz ro go'yand dar "S.S." go'yad:

Barcha xodimlari pari yanglig',
Yoshurun kunduz axtari yanglig',

Pari uy qizlig'ida xizmatko'sh,
Ne uchunkim erur pari ro'po'sh.

uy qezi – boshida ***e,*** nuqtali ***z*** kasrali [forscha] xodima va kaniz...

Omograflar o'rta asr lug'atchilik an'anasi bo'yicha bir lug'at maqola ichida berilgan:

قانی (268a) ya'ni ku va niz xuni u va niz toifa az atrok...

qani-forscha ***ku***, yana xuni ***u***, yana turkiy qavmlardan birining nomi...

Fath Alixon so'zlar orfografiyasiga katta e'tibor bergan. So'zlarning tuzilishi ikki usulda ko'rsatilgan: ham harakat – fatha, zamma, kasra, ham maxsus fonetik terminlar b-n. So'zlarning fonetik tuzilishini bunday ikki usulda ko'rsatish lug'atchidan katta bilim va mehnat talab qilgan. U o'z mehnati b-n kelajak avlodga mumtoz o'zbek tili bo'yicha muhim ma'lumotlar qoldirdi. Shakldosh undoshlar maxsus terminlar orqali ko'rsatilgan: ***p*** – boyi ajamiy, ***g*** – kofi ajamiy, ***k*** – kofi toziy, ***ch*** – jimi ajamiy, ***b*** – boyi abjad, ***j*** – jimi abjad. ***P*** harfi lug'atda boyi porsiy atamasi orqali ko'rsatilgan:

پتد ی (99b) ba kasri boyi porsiy va toyi qarashat navisht va tahrir kard...

Pitdi – forsiy ***b*** (ya'ni ***p***) kasrali, so'ng ***g*** forscha navisht va tahrir kard...

Cho'ziq ***a:*** ikki usulda ko'rsatilgan. So'z boshida alif ustiga madda qo'yish bilan:

آز (23a) – ba sukuni zoyi nuqtador ba ma'niyi andak...

a:z – nuqtali ***z*** ustida sukun, [forscha] andak...

So‘z o‘rtasida kashida termini orqali ko‘rsatilgan:

بارای (97a) – royi qarashat ba alifi kashida va ba yo rasida ya’ni baravam...va niz meravam...

bara:y – ***r*** cho‘ziq ***a:*** b-n, so‘ng ***y,*** [forscha] baravam...va meravam...

Cho‘ziq ***o‘:*** vovi ma’lum atamasi orqali ko‘rsatilgan bo‘lsa:

توقسان – (158a) ba fathi toyi qarashat va vovi ma’lum va sukuni qof adadi navadro go‘yand

to‘qson – ***t*** cho‘ziq ***o‘:*** bilan qof ustida sukun [forscha] navad

Qisqa ***u*** vovi majhul termini bilan ko‘rsatilgan:

آووچلاب – (25b) ba zammi vov va vovi majhul va sukuni jimi abjad amrist az kaf dast giriftan

a:vujlab – ***v*** qisqa ***u*** b-n ***j*** ustida sukun [forscha] az kaf dast giriftan

Lug‘atda ***e*** va ***i*** aniq ifodalangan. Qomusda bir xil yoziluvchi ایت so‘zi kasra b-n it, fatha, ya’ni ***e*** bilan o‘qilsa, fe’lning buyruq shakli ***et*** bo‘lishligi quyidagicha izohlangan:

ایت (66b) ba kasri avval sak va niz amr az nopadid shudan va fathali avval amr az kasradan.

ایت avval kasra b-n sak (it), yana yo‘q bo‘lmoq, fatha ya’ni ***e*** b-n et-amr az kardan...

Ushbu lug‘at nashr qilinmagan.

Ad.: *Умаров Э. Эски ўзбек луғатлари. – Т., 1992; Фатҳ Алихон. “Китоби луғати атрокийа”.*

E.U.

KICHIK MIRZO (1451–1484, Hirot) – shoir, temuriylardan. Sulton Husayn Boyqaroning jiyani. Asl ismi Sulton Muhammad mirzo. Sulton Husaynning opasi Oqobegim va temuriyzoda Sulton Ahmad mirzo nikohidan tug‘ilgan. Yoshligida otasi Sulton Ahmad bilan birga Abusaid mirzoga xizmat qilgan, uning Iroqqa qilgan yurishida ishtirok etgan. Sulton Abusaid mag‘lubiyatga uchrab, qatl qilingandan keyin K.M. otasi bilan Hirotga kelgan (1469). Bu vaqtda Hirot taxtini Sulton Husayn mirzo egallagan edi. U jiyani va pochchasini yaxshi kutib olgan. Shu vaqtdan boshlab K.M. tog‘asiga xizmat qilgan, harbiy-siyosiy ishlarda ishtirok etib, mas’uliyatli topshiriqlarni bajargan. Husayn Boyqaro Bog‘i Zog‘onda Yodgor mirzoni qo‘lga tushirganda, K.M.ni Muzaffar Barlos bilan birga bog‘ning katta darvozasini ishg‘ol qilish uchun yuborgan edi (1470). Chinoron jangida esa K.M. Husayn Boyqaro lashkarining so‘l qo‘liga qo‘mondonlik qilgan. Keyinchalik u harbiy-siyosiy faoliyatni tark etib, ilm-fan va ijod bilan shug‘ullangan. Haj ziyoratiga borib kelgan.

Kichik mirzo N.ning ijodiy taqdirida o‘ziga xos rol o‘ynagan. Ma’lumki, N.ning shoir sifatida mashhur bo‘lishi XV asrning 60-yy.ining ikkinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. Ana shu davrda Hirotda K.M. boshliq N. muxlislari bo‘lgan yoshlar faoliyat ko‘rsatgan. Ular shoirning she’rlarini ko‘chirib, o‘quvchilar orasiga tarqatganlar va shu tariqa uning ijodining ommalashuvida, N.ning xalqqa tanilishida katta xizmat qilganlar. N. “B.B.” devoni debochasida buni minnatdorlik bilan qayd qilib, Kichik mirzoni madh etgan: “Xususan saltanat ganjining durri samini, qanoat mulkining xoknishini, ilm-u zako ahlining yagonasi...

Tab’i darvesh-u o‘zi shohnishon,
Shohi darvesh Muhammad Sulton.

... matla’ye yo ortuqroq yo tamom g‘azal tilim xomasi taqririga kelsa erdi...filhol ani muanbar qalam birla kofurkirdor safhag‘a raqam qilib, oq-u qaroni andin mahtut qilur erdi va yana ham anga qarobat hisobliq tezfahm shahzodalar va musohib intisobliq xushtab’ mirzozodalar mutaaddid savod qilib, soyir ulusqa yoyilur erdi“. Afsuski, biz bu oliyjanob aslzoda yoshlarning nomlarini bilmaymiz. N. faqat Sulton Muhammad Mirzoni tilga oladi, qolganlarini “tezfahm shahzodalar”, “xushtab’ mirzozodalar” deb ataydi. Bu yoshlar adabiyotimiz u-n buyuk bir xizmatni amalga oshirib ketganlari shubhasizdir. K.M. bilan N. o‘rtasidagi munosabatlar K.M. va-

fotiga qadar davom etgan va N. keyinchalik ham uning xotirasini qalbida saqlagan. O‘z asarlarida u K.M. nomini ko‘p o‘rinlarda turli munosabatlar bilan tilga oladi.

N. K.M. haqida “M.N.” tazkirasida ham ma’lumot beradi va bir forsiy ruboiysini keltiradi:

Umre basaloh mesutudam xudro,
Dar shevayi zuhd menamudam xudro.

Chun ishq omad kadom zuhd-u chi saloh,
Al minnatulillah ozmudam xudro.

Tarj.: o‘zimni umr bo‘yi yaxshilik bilan maqtardim, o‘zimni taqvodorlik yo‘liga solardim, ishq kelgach, na taqvodorlik qoldi-yu va na yaxshilik, Xudoga shukrki, o‘zimni sinadim.

N. yozishicha, bu o‘rinda Jomiyning ruboiysi b-n tavorud voqe’ bo‘lgan. Asar shunday bo‘lsa, bu ham ulug‘ davlatdir, – deydi shoir.

“S.” asarida N. o‘zi uchun aziz va qadrli bo‘lgan kishilarni yodga olar ekan, K.M. xotirasiga bag‘ishlab samimiy, haroratli misralar bitadi, uning ilmi va fazilatlarini ta’riflaydi:

Ilm aflokida Birjis mahal,
Barcha ashkol o‘lum ollida hal.

Nazm-u nasrig‘a Utorud maftun,
Har savol etsa, javobida zabun.

Shahlig‘-u ilm-u yigitlik chog‘i,
Foniy-u so‘fiy-u solik dog‘i.

N. shunday nodir insonning bevaqt vafot etgani, bu hodisa o‘ziga qanday og‘ir ta’sir qilgani haqida ham yozadi. Bu misralar shoirning K.M. ga bo‘lgan samimiy mehrining o‘ziga xos badiiy ifodasidir. N. K.M. vafotiga bag‘ishlab marsiya ham yozgan. Ushbu marsiya o‘zbek adabiyotida mazkur janrning yorqin namunasi hisoblanadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4 жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. 10 жилдлик,4-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Абдураззоқ Самарқандий. Матлаъ ас-саъдайн мажмаъ ал-баҳрайн. 2-жилд. – Т., 2008.*

Q.E.

KLAYNMIXEL Zigrid (Sigrid Kleinmichel, 1938) – germaniyalik sharqshunos olima. Ingliz, nemis, fransuz, rus, o‘zbek va turk tillarini o‘zlashtirgan. Sankt-Peterburgda mumtoz turkologiya bo‘yicha tahsil olgan. Berlindagi Gumboldt universitetida turkologiyadan dars bergan. Olima XX asr boshlari o‘zbek adabiyotini chuqur o‘rgangan. “Alpomish” dostoni, Lutfiy, Mashrab, Maxtumquli ijodi bo‘yicha maxsus tadqiqotlar muallifi. Usmonli turk tili va adabiyoti bo‘yicha mutaxassis bo‘lgani sabab N. ijodini turk adabiyoti b-n qiyosiy tarzda o‘rganadi. 1990-y.dan boshlab N. ijodiga doir bir qancha ilmiy tadqiqotlari e’lon qilingan. Jumladan, nemis tilida bir yuz o‘ttiz besh sahifadan iborat “Alisher Navoiy va Ahmad poshsho”, turk tilida “Alisher Navoiy va usmonli turk shoirlari” nomli maqolasi chop etilgan. Ularda N. ijodining usmonli turk adabiyotiga ta’siri, turk tiliga tarjimalari haqida fikr yuritiladi. Yana nemis tilida “Navoiy kulgi haqida” (1994), “Navoiyi – benavo: Alisher Navoiyning “Navodir un-nihoya” devoni haqidagi o‘ylar” (2003), “Xizr siymosi va Alisher Navoiy ijodida hayot suvi masalasi” (2015) maqolalari e’lon qilingan. Turk tilidagi “Alisher Navoiy va usmonli turk shoirlari” maqolasi O.Mamadaliyeva tarjimasi va A.Erkinov, A.Qurbonov so‘zboshisi b-n “Alisher Navoiy” xalqaro jurnalida chop etilgan (2021). Maqolada chig‘atoy adabiyotining usmonli turk shoirlariga ta’siri, ularning N. ijodiga ergashib nazira bog‘lashlari qiyosiy tahlil qilinadi. Xususan, N. g‘azallari ta’sirida Ahmadi Doiy, onado‘lilik Safiy chig‘atoycha, Ahmad Posho usmonli turkchasida g‘azal yozganlari hamda turk olimlarining n.shunoslik faoliyati haqida yoritiladi. Turk shoirlarining xamsanavislik va tazkirachilik faoliyati

tadqiq etiladi. Umuman, olimaning ilmiy faoliyati Martin Hartmann ishlarining davomi sifatida nemis n.shunosligining bir qismi hisoblanadi. O‘zbek adabiyoti, madaniyatini o‘rganib, xalqaro miqyosda targ‘ib etgani e’tiborga loyiq.

Ad.: *Эркинов А., Қурбонов А. Зигрид Клайнмихел – Навоий ижодининг хорижлик тадқиқотчиси (З.Клайнмихел мақоласига сўзбоши); Клайнмихел З. Алишер Навоий ва усмонли турк шоирлари // Alisher Navoiy. 2021, № 1, (1).*

O.T.



KLOSON Jerard (1891–1974) – ingliz turkshunos olimi. Maktabni bitirgach, avval Oksforddagi korpus-kristi kollejida, so‘ngra 1911-y. “Boden Sanskit Scholar”, 1913-y. “Hall-Houghtman Syriac Prizeman”, 1920-y. “James New Arabic Scholar” o‘quv yurtlarida o‘qigan. Xitoy va tibet tillarini mustaqil o‘rgangan. Olim ikki asari bilan turkshunoslikka katta hissa qo‘shdi. N. asarlari bo‘yicha tuzilgan “Sangloh” asarining faksimiliyasini turli ko‘rsatkichlar bilan nashr qildi: Sanglah A Persian Guide to the Turkish Language by Muhammad Mahi Xan Facsimile text with an introduction and indices by Sir Gerard Clauson. London, 1960. Olimning ilmiy hayotida 1972-y.da chop etilgan “XIII asrgacha bo‘lgan turkiy yodgorliklarining etimologik lug‘ati” (“An Etymological Dictionary of pre-thirteenth century Turkish”) alohida o‘rin tutadi. 1960 y.i Mirza Muhammad Mahdixonning “Sangloh” asarining faksimilesini turli ko‘rsatkichlar bilan nashr qildirib, juda katta ishni amalga oshirdi. Ushbu nashrga Londondagi qo‘lyozmani asos qilib olgan. Qo‘lyozma tarkibi: “Maboni ul-lug‘at” (1-26), “Sangloh” (27-353), N. asarlarida uchrovchi arabcha-forscha so‘zlar (353-367)dan iborat. Olim “Sangloh” faksimilesini nashrga tayyorlar ekan, qo‘lyozmani sinchiklab o‘rgangan. Lug‘atda uchrovchi shaxs oti bo‘ladimi, mo‘g‘ulcha so‘z bo‘ladimi hammasini turli ilovalarda ko‘rsatgan. So‘zboshida (1-32-betlar) lug‘atdagi unli va undoshlar, qo‘lyozma haqida, batafsil ma’lumot bergan. “Maboni ul-lug‘at”ning D.Ross va B.Atalay tomonidan amalga oshirilgan nashrining yutuq va kamchiliklarini ko‘rsatgan. Bu yerda shuningdek, N. asarlariga tuzilgan lug‘atlar haqida ham batafsil ma’lumot berilgan. Olim “Sangloh”dagi so‘zlar orfografiyasiga alohida to‘xtalgan. Lug‘at fonologiyasi haqida ma’lumot bergan.

Muallif ushbu ishda “Sangloh”ning faksimilesini ilova qilgan. Faksimileni o‘qish shuni ko‘rsatadiki, noshir Mahdixonning so‘z imlosiga oid lingvistik terminlariga e’tibor bermagan. Natijada, N. asarlaridagi so‘zlar Yevropa tillariga qattiqlik-yumshoqlik asosida *ä, ö, ë* kabi belgilar b-n transliteratsiya (harfma-harf ag‘darish) qilingan.

Ad.: *Sanglah. A Persian lude fo the Turkish language by Muhammad Mahdi Xan. Facsimile text with an introduction and Idices by sir Gerard Clauson. – London, 1960.*

O.T.

KOBUL – N. “M.N.”, “T.M.A.” va “S.I.” kabi asarlarida turli munosabat b-n tilga olgan shahar. Buyuk ipak yo‘lining chorrahalaridan biri bo‘lgan qadimiy kent. Hozir Afg‘oniston Islom Respublikasining poytaxti. Mamlakatning eng yirik iqtisodiy, siyosiy, madaniy shahri hisoblanadi. Shahar K. daryosi bo‘yida joylashgan.

K. shahrining boy tarixida Temuriylar davri alohida o‘rin tutadi. Bu haqda temuriylar davrining muarrixlari bo‘lgan Nizomiddin Shomiy, Ali Yazdiy, Natanziy, Abdurazzoq Samarqandiy, Davlatshoh Samarqandiy, Mirxond, Xondamirlar Sohibqiron Amir Temur va temuriy hukmdorlarga bag‘ishlab bitgan tarixiy kitoblarida bir-biridan qimmatli ma’lumotlar, xabarlar yozib qoldirishgan.

K. shahrining tarixi, temuriy hukmdorlar davridagi holati, madaniy muhiti, Kobuliy nisbasi b-n bog‘liq shoir, adiblarining ijodini N.ning buyuk shaxsi, ijodi, asarlari, shaharsozlik madaniyati b-n bog‘lab tadqiq qilish ham foydadan xoli emas. O‘rganishimizga ko‘ra, K. shahri b-n bog‘liq tarixiy va poetik lavhalar asosan N.ning “M.N.” tazkirasida uchraydi. M-n, tog‘asi Mir Sayid Kobuliy. N.ning “T.M.A.” tarixiy asarining “Sulaymon binni Dovud” nomli fiqrasida ham K. shahri tarixiy toponim sifatida tilga olingan. Ya’ni, gap Sulaymon payg‘ambarning kechki ovqatni shu shaharda tanovvul qilishi xususidadir. Chunonchi: “Va mashhurdurkim, saboh Shomdin azimat qilib choshtni Istaxrda yer erdi. Andin azimat qilib, Shom taomin Kobulda ixtiyor qilur erdi kim.”

Ad: *Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т.. 2011; Бобур. Бобурнома. – Т., 2002.*

E.Q.

KOVA OHANGAR – N. tasvirlagan qahramonlardan biri, sipohonlik mehnatkash va hunarmand xalq vakili sifatida Sharq adabiyotida mashhur obraz. N. Peshdodiy, Kayoniy, Ashkoniy, Sosoniy kabi Ajam shohlari tarixiga bag‘ishlab yozgan “T.M.A.” asarida hunarmand temirchi K.O obrazini zolim hukmdor Zahhok binni Marodisga qarshi qo‘ygan va zulmni qoralagan. N. asarning “Zahhok binni Marodis” nomli faslida K.O.ni uch marta tilga olgan. Syujetlar talqiniga ko‘ra, Zahhok uning birinchi o‘g‘lini qatl qiladi, ikkinchi o‘g‘liga ham chek tushganda, Sipohonda K.O. – ota unga bosh ko‘targan va g‘olib kelgan. Ya’ni: “Sipohonda Kova ohangarning bir o‘g‘li bor erdi, bu jihatdin qatl bo‘lub erdi, yana bir o‘g‘lig‘a dag‘i chek tushti. Ul betahammul bo‘lub, qichqirib, elga ko‘p ta’nalar qilib, Zahhokni so‘kti. El dag‘i anga muttafiq bo‘lub, xuruj qildilar. Dag‘i Sipohon volisi o‘lturub, Zahhok ustig‘a yurudilar. Bag‘oyat qalin el jam’ bo‘lub... Ul chog‘da Zahhok vahmidin qo‘ychilar orasida yoshurun bo‘lur erdi, tonib, ko‘torib, Kova ohangar sipohsolor bo‘lub, temurchilar beliga bog‘lar saxtiyonnn yig‘och boshig‘a bog‘lab, alam qilib yurub erdi”.

Asarlarida otalarni Razzoq ul-Qayum deb sharaflagan N. K.O. obrazi orqali otalarning tabiiy huquqlarini ham ko‘rsatishga harakat qilgan.

K.O. b-n bog‘liq syujetni Firdavsiy Tusiy “Shohnoma”da asar xarakteridan kelib chiqib, batafsil yoritgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

B.R.

KOINOT – Butun borliq, olam, kosmos. N. asarlarida muallifning K. haqidagi tasavvurlari aks etgan. Mazkur tasavvurlarning badiiy talqini “X.”ning barcha dostonlarining muqaddima boblaridan o‘rin olgan. Ularda N. borliq, K.ning vujudga kelishi hamda Yer, Quyosh, shuningdek, Atorud (Merkuriy), Mushtariy (Yupiter), Zuhra (Venera), Mirrix (Mars), Zuhal (Saturn) singari sayyoralar haqida so‘z yuritadi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, N.ning K. haqidagi qarashlari geosentrik asosga ega, ya’ni, unda Yer K.ning markazi sifatida qaraladi. Quyosh ham, Oy ham, sayyoralar ham Yer atrofida aylanib yuradi.

N. tasavvuridagi K. Tangri tomonidan yaratilgan hamma-hamma narsani o‘z ichiga oladi. “Masnaviy” (“Sayyid Hasanga maktub” deb ham ataladi)da shoir bu borada shunday yozgan:

Uchinchi ulkim, chun Xoliqi zuljalol,
Ki ham lamyazal keldi, ham loyazol.

Chu lavhi vujud uzra tortib qalam,
Ikki kavn tarhig‘a urdi raqam.

Burun chekti mundog‘ sipehri rafi’,
Yana yoydi bu nav’ arzi vasi’

Nekim jilvagar qildi aflok aro,
Ne qildi ayon arsayi xok aro

Demay yetti abo-yu to‘rt ummahot,
Ki xilqat to‘ni kiydi chun koinot.

Shoir bularning barchasi, zarradan to quyoshgacha bir-biri b-n bog‘liq ekanini “H.A.”da alohida ta’kidlaydi.

Oni munga, muni anga band etib,
Bir-biriga barchani payvand etib.

Vositalar bo‘ldi ayon to‘ – bato‘,
Bir-biriga bog‘lanibon mo‘ – bamo‘.

K. N. asarlarida Muhammad (s.a.v) munosabati bilan ham tilga olinadi. Shoir u kishini “Xojayi koinot” deb ulug‘laydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-жилдлар. – Т., 2011; Ўзбек адабиёти тарихи, 5 томлик, 2-том. – Т., 1977.*

Q.E.

KOKILLI BAKOVUL – Sulton Husayn Boyqaroning mulozimlaridan. Uning saroyida bakovul bo‘lib xizmat qilgan. Mirxondning ma’lumot berishicha, N. Astrobodda bir yil turgandan so‘ng Hirotga kelgan va Sultondan Astrobodga boshqa bir kishini hokim etishini so‘ragan. Lekin Sulton bunga rozi bo‘lmagan va N. Astrobodga qaytgan. Bu voqeadan biroz keyin N.ning qarindoshi amir Haydar Hirotga keladi va mast holida Sultonning mulozimi K.B.ning N.ga zahar solingan ovqat bergani, Mir Alisherning vahimada ekani va podshohga muxoliflik qilmoqchi ekanini aytadi. Bu gaplar Sultonga ham yetib boradi va u Astrobodga chopar yuborib, bunday qasd hech qachon uning xayoliga kelmaganini bildirib, ont ichadi. N. Hirotga otlanadi va podshoh bilan uchrashgandan so‘ng, Mir Haydar qamoqqa olinadi. N.ga esa Hirotda qolishga ruxsat beriladi.

Bu voqeani bayon qilar ekan, tarixchi unga o‘z munosabatini bildirmagan va K.B.ning yuqoridagi ishni chindan ham qilgani yoki qilmagani haqida hech nima demagan. Faqat N.ning Mir Haydar aytgan so‘zlarni inkor qilganini qayd etgan.

Bu haqda “Habib us-siyar”da berilgan ma’lumot yuqoridagidan biroz farq qiladi. “Ravzat us-safo”da Mir Haydarning K.B.ning N.ga zahar solingan ovqat bergani haqida gapirgani aytilgan bo‘lsa, “Habib us-siyar”da uning so‘zlari podshoh mulozimlari K.B.ga N.ning ovqatiga zahar qo‘shib berishni tayinlaganini N. eshitgan, shuning uchun vahimaga tushib qolgan” tarzida keltiriladi.

Yuqoridagi voqea N. biografiyasining yaxshi yoritilmagan, tadqiqotchilardan aniqlik kiritishni tilab qiladigan momentlaridan biridir.

K.B. haqida boshqa ma’lumotlar mavjud emas.

Ad.: *Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985.*

Q.E.

KOMIY UBAHIY (t.y.n. – v. 1523) shoir. Yoshligida Mavlono Muhammad Badaxshiy tarbiyatida voyaga yetgan. Iroqda ham tahsil olgan, qaytgach, Hirot yaqinidagi O‘ba qishlog‘ida dehqonchilik qilgan. N. “M.N.”da yozishicha, K.U. adabliq, tavoze’lik va insoniyatlik bo‘lgan. Muammoni yaxshi aytgan va yaxshi ochgan:

Kase, ki u sari dastori sarvi man chinad,
Digar zi bog‘ charo dastayi suman chinad.

Tarj: Kimki mening sarvim sallasini chiroyli qilib chirmab qo‘ysa, uning bog‘dan guldasta terishiga hojat qolmaydi.

Bobur ham K.U.ga yaxshi baho beradi.

Sayyid Nafisiyning “Tarixi nazm va nasr dar Eron” asarida yozishicha, K.U. N.dan ham ta’lim olgan. Komil bir devoni Ozarbayjonda saqlanadi, Faxriy Hirotiyning “Radoyif ul-ash’or” va XVI–XIX asrlar bayozlarida K.U. g‘azallari ko‘plab uchraydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

S.G‘.

KOMIL (ar. – mukammal, kamolga yetishgan) – mutafoilun (1-, 2-, 4-hijolar qisqa, 3-, 5-hijolar cho‘ziq (VV – V –) aslining takroridan hosil bo‘ladigan bahr (mutafoilun mutafoilun mutafoilun mutafoilun – V V – V – / V V – V – / V V – V – / V V – V –). Mutafoilun mafoilatun b-n birga eng ko‘p, ya’ni besh hijoli rukn bo‘lgani u-n shunday nomlangan. Ohang imkoniyatlarining cheklangani tufayli forsiy she’riyatda ham, turkiy adabiyotda ham kam qo‘llangan. Arab adabiyotiga xos bu vaznni o‘zbek adabiyotida birinchi bo‘lib N. qo‘llagan:

Ne xayol edi yanakim ko‘ngul qushi
saydini havas aylading,

Badanimg‘a har saridin xadang
otibon anga qafas aylading.

“M.A.”da K. bahrining komili musammani solim vazni ko‘rsatilib, unga misol keltirilgan. Bobur esa “Muxtasar” asarida bu bahr 22 vaznni o‘z ichiga olishini aytib, ularning barchasiga misollar keltiradi.

K. bahrining turli vaznlarida yozilgan she’rlar “Shashmaqom”ning “Buzruk”, “Rost”, “Segoh”, “Iroq” maqomlariga mansub “Talqinchayi rok”, “Soqiynomayi savti sarvinoz”, “Talqinchayi savti sabo”, “Soqiynomayi mo‘g‘ulchayi segoh”, “Segoh” taronasi, “Chanbari Iroq”, “Bozurgoniy”, shuningdek, “Bayoti Sheroziy II”, “Suvora” kuylariga mos keladi.

Keyin Uvaysiy, Munis, Ogahiy, Muqimiy, Habibiylar bu vaznda qalam tebratganlar.

Ad.: *Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Мухтасар. – Т., 1971; Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т., 1998; Ҳожиаҳмедов А. Навоий арузи нафосати. – Т., 2006.*

Q.E.

KOMIL (taxallusi; to‘liq ismi: Pahlavon Muhammadniyoz Abdulla Oxund o‘g‘li Komil Xorazmiy, (1825–1899, Xiva) – shoir, xattot, musiqashunos, tarjimon, davlat arbobi. Otasi Abdulla Oxund madrasada mudarris bo‘lgan. Xiva madrasalarida tahsil olib, arab va fors tillarini mukammal o‘rgangan. 25–30 yoshlarida shoir sifatida tanilgan.

SK.ning ijodiy takomilida N. adabiy merosi alohida o‘rin tutadi. U buyuk salafining ko‘plab g‘azallariga tatabbu’lar qilgan, taxmislar bog‘lagan, ustozi qalamga olgan mavzularni davom ettirib va rivojlantirib, u kashf etgan tashbehlarning yangi qirralarini topib, qator baytlar yaratgan. M-n, “Fido”, “Arzimas”, “Tama’”, “Ey ko‘ngul” radifli g‘azallariga tatabbu’lar qilgan bo‘lsa, “Taxt-u johing kishvari mulki Sikandar bo‘ldi tut”, “Do‘stlar, olam elig‘a yor-u hamdam bo‘lmangiz”, “Baqo dashti nechuk qat’ o‘lmasun, aylab murur ayyom”, “Yordin ayrilg‘oli shaydo ko‘ngul, bexob ko‘z” misralari b-n boshlanadigan bir necha g‘azallariga taxmis bog‘lagan. “Muxammasoti Komil” to‘plamidan uning b. shoirlar g‘azallariga bog‘lagan 284 muxammasi o‘rin olgan. Bu muxammaslarning aksariyati, o‘z-o‘zidan N. g‘azallariga bog‘langan. N. ilgari surgan fikrlar, qo‘llagan tashbehlardan ilhomlanib, baytlar tuzgan.

Quyosh va oy go‘zallik timsollari bo‘lganligi u-n ham N. qator bayt-u misralarida ota-onani oy va quyoshga tashbeh etadi. Jumladan, bir g‘azalida mahbubani ta’riflar ekan, otang – quyosh-u onang – oy bo‘lganligi, shu ikki go‘zal xilqatdan yaratilganliging u-n ham sen go‘zallarning shohisan, husn davlatining sohibisan deydi:

Ey husn aro sohibg‘ino: xurshid –
atongdur, oy – ano...

Yana bir baytida yozadi:

Oy, kun – ato birla ano, farzand
sen bo‘lsang ne tong –
Kim, sen samindursen, valek ul ikki
andoqkim sadaf.

Maz.: Agar sen farzand bo‘lsang, oy bilan quyosh ota bilan ona. Go‘yo sen qimmatbaho gavharsan-u ular ikkalasi seni bag‘rida parvarishlagan sadaf.

N. ta’sirida yaratilgan quyidagi baytida esa K. otani oyga-yu onani quyoshga muqoyasa qiladi:

Mumkin emas sening kibi farzand tug‘mog‘i,
Gar bo‘lsa ham oto qamar-u modar oftob.

Ma’shuqaning oshiq ko‘zi qorachig‘idan joy olishi haqidagi tashbeh – N.ning badiiy kashfiyoti. Keyinchalik ayni tashbehni b. shoirlar davom ettirib, uning yangidan yangi qirralarini kashf qildilar. Mana bu baytida K. ham ma’shuqaga murojaat etib, “Alifdek qomating bilan xirom aylab kel-u jon gulshani aro vatan qil”, – deb lutf etadi:

Alifdek qadingni xiromon etib,
Vatan qil kelib gulshani jon aro.

K.ning “O‘tmish g‘ami-yu istiqbol tashvishini qo‘yib, bugun imkon bor ekan, Tangriga toat qilingki, dam bu damdir” ma’nosidagi mana bu bayti:

Qo‘yub moziy-u mustaqbalni,
aylang Tengrig‘a toat,
G‘animat dam bu damdur,
dam bu damdur, dam bu dam, ahbob, –

N.ning “M.Q.” pandnomasida kelgan quyidagi “Bugun turganda o‘tmish-u kelajak haqida behuda dam urma” mazmunidagi mashhur baytiga hamohang jaranglaydi:

Moziy-u mustaqbal ahvolin takallum
ayla kam,
Ne uchunkim, dam bu damdur,
dam bu damdur, dam bu dam.

K. muxammaslari ham N. g‘azallarida ifodalangan fikrni davom ettirgani va rivojlantirgani, qo‘llangan tashbehlarning yangidan yangi qirralarini ochgani, muayyan g‘azal asosida o‘ziga xos muxammas yaratgani b-n ajralib turadi. Jumladan, “Bo‘lmangiz” radifli g‘azaliga bog‘lagan taxmisida ustozining odamlarga ishonib, o‘z boshingizga ming bir balo orttirmang mazmunidagi hikmatli baytini asoslaydigan va uning mohiyatini ochadigan “Bu dunyo ahlidan vafoning, hatto asarini ham izlab o‘tirmang – men umrim davomida bu toifani rosa imtihon qilib ko‘rdim. Shunday ekan, iloji boricha olam ahlidan o‘zingizni xilvatga chekingki...”, – mazmunidagi misralarni qo‘shadiki, ular g‘azaldagi “Odamlar bilan do‘stlik rishtasini bog‘lab, joningizga har zamon ming bir azob-u uqubatni sotib olmang”, – degan fikr b-n yalakat mag‘izdek birlashib ketadi:

Olam ahlidin vafo osorini qilmang gumon,
Naqd umrim sarf etib, qildim alarni imtihon,
Uzlat istab ahli olamdin qoching boricha jon,
Oshnolig‘ aylabon, o‘z joningizg‘a har zamon,
Boisi yuz ming balo-yu mehnat-u g‘am bo‘lmangiz.

Ma’lum bo‘ladiki, K. N.ning she’riyatdagi sodiq izdoshlaridan bo‘lib, yangi adabiy muhitda buyuk salafi an’analarini munosib tarzda davom ettirgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Комил. Девон. – Т., 1975.*

E.O.



KOMILOV Najmiddin (1937, Tojikiston − 2012, Toshkent) – n.shunos, adabiyotshunos, tasavvufshunos, tarjimon. 1965-y. Samarqand davlat universitetining filologiya fakultetini tugatgan. 1967–1970-yy.da O‘zR FA Til va adabiyot instituti aspiranturasida tahsil olgan. 1970-y.da “Muhammadrizo Ogahiyning tarjimonlik mahorati” mavzusida nomzodlik, 1988-y.da “Xorazm tarjima maktabi (XIX asr tarjima tarixini tipologik va qiyosiy tadqiq etish muammolari)” mavzusida doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilgan. Prof. (1991).

K.N. n.shunoslik rivojiga ham salmoqli hissa qo‘shdi. O‘tgan asr 80-yy.ning ikkinchi yarmida jamiyatda esa boshlagan erkinlik epkinlaridan foydalanib, u shoirning “L.M.”, “F.Sh.” dostonlari, qator g‘azallarini tasavvuf jihatidan o‘rganishni boshlab berdi. “Timsollar timsoli”, “Shoh-u darvesh hikmati”, “Suqrot − komil inson timsoli”, “Ishq otashining samandari” (hammualliflikda), “Jon va jonon mojarosi”, “Axtarin ishq etti-yu, sovuq nafasin oh subh”, “Erur ko‘ngulda safo ishq toza dog‘i bila”, “Ahd qildim: ishq lafzin tilga mazkur etmayin”, “Soqiyo, talx o‘ldi ayshim hajr bedodi bila” kabi maqolalari bu jihatdan diqqatga sazovor. Bu maqolalar o‘z vaqtida adabiy hayotda muhim voqea bo‘lgan edi, hozir ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas. Ular orqali olim N. asarlarining irfoniy mohiyatini ochgan, g‘azallaridagi so‘fiyona istiloh-timsollarning ma’no qirralariga o‘quvchilar e’tiborini tortgan, adabiyotshunoslarni mumtoz adabiyotni tasavvuf falsafasi nuqtayi nazaridan tekshirishga da’vat qilgan edi. O‘zi boshlagan yo‘lni izchil davom ettirib, keyinchalik “S.I.” haqida salmoqli tadqiqot yaratdi. “Sayid Hasan Ardasher − komil insonmi?” maqolasida N.ga ma’naviy padar maqomidagi bu najib inson shaxsiyati va tasavvufdagi darajasini shoirning Samarqanddan unga yo‘llagan masnaviysi, “N.M.” tazkirasi, vafotiga bag‘ishlab yozgan marsiyasi va “H.S.H.A.” asari tahlili asosida oydinlashtirishga harakat qiladi.

K.N.ning N.ning forsiy ijodi, xususan, qasidalari ustida olib borgan tadqiqotlari teran tahlillar va yangi ilmiy kuzatishlarga boyligi b-n ajralib turadi. U “S.Z.” tarkibidagi 6 qasida − “Ruh ul-quds”, “Ayn ul-hayot”, “Tuhfat ul-afkor”, “Qut ul-qulub”, “Minhoj un-najot”, “Nasim ul-xuld”larning har birini alohida-alohida tekshirib, ularning irfoniy mazmuni va badiiy qimmatini ko‘rsatib berdi. “Nasim ul-xuld”ning nasriy tarjimasini amalga oshirdi. Vafotidan so‘ng shoirning u sharhlagan 50 ta g‘azali “Ma’nolar olamiga safar” nomi bilan alohida kitob holida nashr qilindi. Shuningdek, K.N. N.ning davlatchilikka oid qarashlari, odil podshoh haqidagi g‘oyalari, ustod-shogird munosabatlari, ma’naviy-axloqiy, tarbiya b-n bog‘liq fikrlarini ham tadqiq etib maqolalar yozgan, “X.”ning nasriy bayonlarini tahlil qilgan, N. va adabiy ta’sir masalalari, tatabbu’navislik an’analarini o‘rgangan. Bir so‘z bilan aytganda, ustod ijodining bir qanoti tarjimashunoslik bo‘lsa, bir qanoti n.shunoslik edi. N.shunoslikka oid tadqiqotlari asosan shoir asarlarining tasavvufiy asoslarini ochish va yuksak badiiyati sirlarini kashf etishga yo‘naltirilgan edi.

Ad.: *Комилов Н // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 4-жилд. – Т., 2002; Очилов Э. Нажмиддин Комилов // ЎТА, 2007, № 6; Ибн Сино ва Данте. – Т., 1983; Тасаввуф. – Т., 1996 (тўла нашри 2011; Тавҳид асрори. – Т., 1999; Тафаккур карвонлари. – Т., 1999; Нажмиддин Кубро. Хизр чашмаси. – Т., 2005; Маънолар оламига сафар. – Т., 2012.*

E.O.

KOMILOV Rustam – (1924–1969) – adabiyotshunos, nashriyot xodimi. O‘zbek shoiri Mujrim Obid hayoti va ijodining tadqiqotchilaridan biri. N. asarlari o‘n besh jildligining asosiy nashriyot muharrirlaridan. Bu nashrning 15-jildida K.R. N.ning “T.A.H.” va boshqa asarlari bo‘yicha bergan izohlari ilmiy ahamiyatga ega.

Ad.: *Алишер Навоий. ТАТ. 1-10 жилдлар. – Т., 2011; Мужрим Обид. Ғазаллар. Сўзбоши муаллифи Комилов Р. – Т., 1960.*

Ab.H.

KOMPOZITSION INVERSIYA – adabiy usul. K.I. poetik inversiyadan boshqa hodisa bo‘lib, undan farqlanadi. Poetik inversiya she’rda so‘zlarning odatdagi to‘g‘ri grammatik tartibda emas, balki she’r tuzilishi talablariga mos tarzda o‘rin almashinuvi tufayli yuzaga keladigan va asosan, she’riy shaklga, qisman nasrning she’riy shakliga yaqin bo‘lgan ayrim turlari (saj’)ga xos hodisa bo‘lsa, K.I. bayon tartibi va kompozitsiya b-n bog‘liq usuldir. Bunda muallif bayondagi izchillikni ataylab buzadi va bayon zanjiridagi muhim bir halqani tashlab ketadi. Natijada, syujet voqealari ketma-ketligida o‘rin almashinuvi sodir bo‘ladi, ana shu tashlab ketilgan halqada yuz bergan voqea o‘quvchi uchun ham, qahramon uchun ham sir bo‘lib qoladi. Keyingi voqealar ana shu sir bilan bog‘liq ravishda rivojlanadi. Mazkur usul zamonaviy adabiyotda, hikoya va qissalarda ko‘p qo‘llaniladi, xususan, detektiv janrda ijod qiluvchi adiblarning sevimli usuli hisoblanadi.

Bu usuldan N. ham foydalangan. Uning “H.P.M.” asarida keltirilgan bir hikoya K.I. asosiga qurilgan. Unda N.ning Mashhadda bemor bo‘lib yotgani, Pahlavon Muhammadning undan xabar olib, g‘amxo‘rlik qilib turgani va bir qatla kelganda, bemor do‘stining xayolini kasallikdan chalg‘itish maqsadida qilgan hazili hikoya qilingan. Pahlavon Muhammad N.ning jaybidagi qog‘ozda o‘sha kuni tongda yozilgan va hali hech kimga ko‘rsatmagan she’rini ko‘rib qoladi va shu yerning o‘zida uni yodlab oladi. Bemor N. buni payqamaydi. So‘ngra Pahlavon adabiy mavzuda suhbat boshlaydi va haligi she’rni Nasimiy she’ri sifatida o‘qib beradi. Hikoyada Pahlavonning N. g‘azalini unga bildirmay yodlab olgani bayon zanjiridan tushirib qoldiriladi va sir effekti yuzaga keladi. Taajjublangan do‘stining savollariga javoban Pahlavon bu she’rni 12 yil oldin Bobur mirzo majlisida eshitgani va yod olganini aytadi. Ertasiga esa hatto uning so‘zlarini tasdiqlaydigan “guvohlar” ham olib keladi. Nihoyat, do‘stining hayrati oshib ketganini ko‘rgandan so‘ng u sirni ochadi va buning hazil ekani ma’lum bo‘ladi. Bu o‘rinda hikoyaning asosini beg‘araz hazil tashkil etgani u-n sirni sir egasining o‘zi ochadi.

Keyingi davrlarda yuzaga kelgan rivojlangan nasrga xos bunday usullarning N. ijodida qo‘llanilgani uning nasrdagi mahorati va novatorligidan dalolat beradi.

Ad.: *Эргашев Қ. Навоий насрида композицион инверсия // ЎТА, №1, 2006; Мамажонов С. Композиция ва ёзувчининг ижодий нияти (прозаик инверсия ҳақида) // ЎТА. 1966, 3-сон; Мамажонов С. Ғафур Ғулом прозаси. – Т., 1966.*

Q.E.

KONONOV Andrey Nikolayevich (1906, Sankt-Peterburg – 1986) – f.f. d-ri (1948), prof. (1950), akad. (1974). Tilshunos va matnshunos olim. 1948-y. Leningradda “M.Q.”ning yig‘ma matnini nashr qilgan. Matnni tayyorlashda asarning Leningrad kutubxonalaridagi 6 ta, Toshkent fondlaridagi 2 ta qo‘lyozmasidan foydalangan. Bulardan tashqari, yig‘ma matn uchun Toshkent va Leningradda saqlanayotgan ikki nodir nusxa, shuningdek, Buxoro va Istanbuldagi litografik, Toshkent shahrida lotin harflarida bosilgan nashrdan ham foydalangan.

Ad.: *Алишер Наваи. Возлюбленный сердец. Сводный текст подготовил Кононов А.Н. – М-Л., 1948; Библиография печатных работ академ. Кононова А.Н. // Turcologica, 1986. К 80-летию академ. Кононова А.Н. – Л., 1986.*

E.U.

KONRAD Nikolay Iosifovich (1891, Riga – 1970, Moskva) – sharqshunos, adabiyotshunos. Peterburg universiteti sharqshunoslik fakulteti yapon tillari bo‘limini tugatgan, f.f. d-ri (1934), prof. Rossiya FA haqiqiy a’zosi (1958), sharqshunoslik instituti ilmiy xodimi (1931–1970). 300 dan ortiq ilmiy ishlari e’lon qilingan. Yapon va xitoy adabiyoti tarixi bilan shug‘ullangan. Olim ilmiy tadqiqotlarida Sharq va G‘arb adabiyotini qiyosiy o‘rganadi, e’tiborini ko‘proq Sharq Renessansi – uyg‘onish davriga sabab bo‘lgan omillar va davrning buyuk namoyondalari ijodiga qaratadi. Sharq adabiyotini G‘arb adabiyoti bilan qiyoslash jarayonida N. ijodiga ko‘p marotaba murojaat qiladi. K.N.I. “Renessans va Navoiy” nomli maqolasida (“Tanlangan asarlar. Adabiyot va teatr” (1978) qadimiy Hirotning tarixiy bosib o‘tgan yo‘li va o‘rta asrlardagi madaniy muhit, ijtimoiy-siyosiy hayot haqida fikr yuritib, temuriylar davrining yuzaga kelishi hamda undagi N.ning o‘rni va rolini yoritadi. N. umumiy Sharq adabiyoti fonida yetishib chiqdi, keyinchalik turkiy xalqlar adabiyotiga qo‘shgan hissasini “mintaqaviy adabiyotlarning milliy adabiyotlarga tarqab ketishi”, deya baholaydi. Shoir asarlaridagi universallikka e’tibor qaratib, N. barcha xalqlar shoiri, degan xulosaga kelgan.

Ad.: *Конрад Н.И. Средневосточное возрождение и Алишер Навои // Литература и театр. – М., 1978; Конрад Н.И. Запад и Восток. – М., 1966; Конрад Н.И. Неопубликованные работы. Письма. – М., 1996.*

G.X.

KORGAH (f. − ish joyi, korxona, ustaxona, do‘kon; bir ish amalga oshiriladigan joy yoki narsa. M-n, to‘quvchilik dastgohi; majozan: manzil, qarorgoh, jumladan, dunyo, olam) – dunyo ma’nosida mumtoz she’riyatda keng qo‘llanadigan istiloh, tushuncha. Mirzo Bedil bu dunyoni “korgahi qumoshi shabbof” − “tunda nafis matolar to‘qiydigan korxona”, majoziy ma’noda “zulmat, ya’ni g‘aflatning nafis matosini to‘qiydigan korxona deb ataydi. Ya’ni, rang-barang narsalari b-n odamlarning ko‘zini o‘ynatib, ularni g‘aflat to‘rlariga o‘raydigan va maqsaddan chalg‘itadigan joy. N. ham bu so‘zni aynan dunyo ma’nosida keng qo‘llaydi. M-n:

Bu korgahda xato kelmadi chu bir sari mo‘y,
Xato mening nazarimdandur, xato ko‘rsam.

Maz.: Bu dunyoda bitta qil ham besabab paydo bo‘lmagan. Agarda men biror narsada xato ko‘rsam, u aslida o‘sha narsaning chindan ham xato yaratilgani tufayli emas, balki mening nuqtayi nazarimning qusurli ekanidandir.

Ya’ni, bu dunyoda nimaiki menga nomuvofiq, ortiqcha, keraksiz, noto‘g‘ri bo‘lib ko‘rinsa, bu o‘sha narsaning haqiqatdan ham men o‘ylaganimchalik o‘rinsiz ekanidan emas, balki mening qarashimning xatoligi tufaylidir. Chunki Xudoning ishida xato bo‘lishi mumkin emas. Bani basharga “Xudoning xatosi” bo‘lib ko‘ringan narsalar aslida o‘z aqlining mahdudligi, ilmining chegaralangani, nuqtayi nazarining biqiqligi hosilasidir. Olam esa bandasiga bog‘liq bo‘lmagan azaliy va abadiy qonuniyatlar, oliy va sobit muntazamlik asosida harakatlanadigan yaxlit butunlikdir.

Yoki:

Boda tutkim, bu ulug‘ korgah ahvolindin
Hech fahm o‘lmadi har necha xayolot aylab.

Maz.: May tutki, bu dunyo sir-u sinoati haqida har qancha o‘ylab, mushohada yuritib, tasavvur-u taxayyulga berilsam-da, hech narsa ma’lum bo‘lmadi.

Bu yerda, albatta, boda va uning may, sharob kabi ma’nodoshlari tasavvuf adabiyotida ilohiy tajalliy timsoli, ishq va irfon ramzi bo‘lib keladi.

Shunga muvofiq, mastlik ilohiy ma'rifatdan huzurlanishni, ma'naviy zavq daryosiga g'arq bo'lishni bildiradi. Tajalliy – ko'rinish, jilvalanish. G'aybdan keladigan va qalbda namoyon bo'ladigan ilohiy nur va sirlar. Haq taolo hamisha hamma yerda turli darajada tajalliy etadi. Irfon (ma'rifat) – Alloh mohiyati haqidagi ilm.

Ma'lum bo'ladiki, shoir xulosasiga ko'ra, bu ilohiy sir-sinoatning tubiga yetib bo'lmaydi, binobarin, Haq san'ati mushohadasidan hayratlanish, zavqlanish lozim. O'zi boshqa bir g'azalida yozganidek:

Bu korgahda hayrat jonimni kuydurubtur.

Shoirning K. b-n bog'liq bayt-u misralarida uning mohiyatini tushunib bo'lmasligi, sir-asrori nihoyatda mubhamligi ("....bu korgah sirri mubham bo'luptur"), anglashga inson aqli ojizligi xususida so'z boradi.

Qilmag'il bu korgah vasfig'a fikr-u boda ich –
Kim, xirad idroki ojizdur aning ehsosidin.
Soqiyo, jomi jahonbin tutki, andin kashf etay –
Kim, ko'p ish bu korgah vaz'ida mubhamdur manga.

Ma'lum bo'ladiki, shoir bu olam sir-sinoatlarini tushunish u-n, uning ishlaridan hayronligini bartaraf etish u-n, boshini qotirgan chigalliklarni yechish u-n soqiyga murojaat qilib, may, majoziy ma'noda esa Yaratuvchidan ma'rifat so'raydi. Bu uning tinimsiz fikrlagani, tafakkur ummoniga g'arq bo'lgani, dunyo mohiyati, inson qalbi sir-sinoatlarini bilishga juda qiziqqanini ko'rsatadi.

Ad.: *Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. – Т., 1983; Очилов Э. Бир ҳовуч дур. – Т., 2011; Фарҳанги забони тожики. Жилд 1. – М., 1969.*

E.O.

KORIZ (f.) – yer ostidan o'tkazilgan suv yo'li, yer osti arig'i. Yer ostidagi bir necha buloqlar o'zaro birlashib, bora-bora ularning suvi yer yuziga chiqadi va sug'orish u-n ishlatiladi. Bir necha quduqlarni birlashtiruvchi yer osti kanali, bir-biri bilan birlashtirilgan quduqlar tizimi. M-n, "Hirot dor us-saltanasida va tegrasida har ne mustag'al va dakokin va bog' va korizkim, ul Hazrat ovoni davlatida bu faqirning mulki erdi..."; "Va Bodg'is viloyatida Tudagi korizi tamom va kamol bila va Gumburoq bulukida Parag'ach korizi..."

Ad.: *Алишер Навоий. Вақфия. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Фарҳанги забони тожики. Жилд 1. – М., 1969; Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2007.*

E.O.

KORSUN Andrey Ivanovich (1907, Kislovodsk – 1963, Leningrad) – shoir, poliglot va tarjimon. Fransuz, ingliz, nemis, island, ukrain kabi Janubiy Yevropa tillarini yaxshi bilgan va shu tillarda yozilgan ko'plab asarlarni rus tiliga mahorat bilan tarjima qilgan. K.A.I. 1931–1934-yy.da RFA kutubxonasida ishlagan, 1934–1941-yy.da esa Ermitaj kutubxonasining 800 dan ziyod nodir kitoblari saqlanadigan Nodir kitoblar bo'limini boshqargan. 1941–1945-yy.da harbiy pochtachi vazifasida ishlagan. Ikkinchi jahon urushidan qaytgach, yana Ermitajda ilmiy xodim lavozimida faoliyat olib borgan.

Uning n.shunoslikka qo'shgan hissasi shundaki, N.Boldirev va M.Dyakonov b-n birgalikda Leningradda qamal kunlarida "Alisher Navoiy" nomli she'riy drama yozgan. Mazkur drama Ikkinchi Jahon urushi yillarida Leningrad qamali kunlarida yozilgani bilan ham biz uchun nihoyatda qimmatlidir.

Ad.: *Книга в России: сборник научных трудов. Выпуск 21. XI–XX.*

B.R.

KOSONIY MUHAMMAD AMIN – xattot va musavvir (XIX asr). Amir Umarxon saroyida xattot va musavvirlarga sardorlik qilgan, chiroy-

li husnixati bilan saroyda munshiylik darajasiga ko‘tarilgan. N.ning “X.M.” devonini ko‘chirgan, ko‘plab qo‘lyozmalarni naqshinkor bezaklar b-n bezagan. Xonning buyrug‘iga ko‘ra tog‘li Pang‘ozda xattotlik maktabi ochib, unda o‘zi ustozlik qilgan. Mohir xattot va musavvir bo‘lishi b-n birgalikda o‘zbek va tojik tillarida Sharifiy taxallusi b-n she’rlar ijod qilgan. K.M.A. haqidagi ma’lumotlarning barchasi Fazliyning “Majmuat ush-shuaro” tazkirasidan olingan. Sharifiy to‘g‘risida Po‘lotjon Domla Qayumovning “Tazkirayi Qayyumiy” asarida ham alohida o‘rin ajratilgan bo‘lib, uning husnixatda mohirligi, devon xattotlari orasida faoliyat yuritgani haqida ma’lumot beriladi. Sharifiy qalamiga mansub yetti banddan iborat muxammas va bitta g‘azal ham keltirilgan.

“X.” dostonining O‘zR FA Davlat Adabiyot muzeyida saqlanuvchi (№23) noyob qo‘lyozma nusxa XIX asrda Umarxon saroyida Mullo Ro‘zi kotib tomonidan ko‘chirilgan bo‘lib, unga 46 ta miniatyura ishlangan. Kitobning biror o‘rnida musavvir nomi qayd etilmagan. Olimlar H.Sulaymon va M.Hakimov ularni Fazliyning bergan bahosiga ko‘ra, K.M.A. qalamiga mansub deyishadi. K.M.A. kitobga 46 ta miniatyura ishlagan. Suratlar alohida chizilib so‘ng kitobga yopishtirilgan va ayrim sahifalarda surat matn b-n bog‘lanmagan. Qo‘lyozmada “X.” dostonlaridan “H.A.” o‘rniga “L.T.” ko‘chirilib, so‘ng “F.Sh.”, “L.M.”, “S.S.”, “S.I.” dostonlari ko‘chirilgan. “L.T.” dostoni mazmuniga muvofiq sakkizta surat ishlangan.

“F.Sh.” dostoniga “Shirin tog‘ qaziyotgan Farhod huzurida” (111 b), “Ot mingan Shirinni ko‘targan Farhod” (115 a), “Cho‘milayotgan Shirinni yashirincha kuzatayotgan Xusrav” (119 a), “Xusrav va Buzurg Ummid” (121 b), “Shirin Xusrav suratini ko‘rmoqda” (125 b), “Farhodning o‘limi” (150 a), “Shirin o‘z qasrida” (152 a), “Farhod va Shirin bir tobutda” (153 a) suratlari ishlangan.

“L.M.”ga “Layli va Majnun maktabda” (178 b), “Majnun va otasi haj ziyoratida” (183 b), “Hayvonlar orasidagi Majnunni Navfal izlab kelishi” (196 b), “Navfal Majnun otasining huzurida” (204 a) kabi miniatyuralar ishlangan.

Suratlarda odamlar o‘tgan davrdagi miniatyuralarga nisbatan soddaroq tasvirlangan, ularda ko‘proq Kashmir madaniyati ta’siri seziladi. Farhodning tog‘ qaziyotgani, Farhod Shirinni oti b-n birga ko‘tarishi, Farhod va Shirin bir tobutda kabi holatlarga suratlar ishlash an’ana tarziga aylangan. Biroq buloqda yuvinayotgan Shirinni yashirincha kuzatayotgan Xisrav, Shirinning Xisrav suratini ko‘rishi kabi manzaralar N. emas, Nizomiy dostoniga xosdir.

K.M.A. ijodida aynan boy xayolot, mazmunning turfaligi, o‘ziga xosligi kuzatiladi. San’atshunos olimlarning bergan bahosiga ko‘ra o‘tmish san’at asarlaridan pastroq mavqeni egallasa-da, qo‘lyozma asarlardagi miniatyura musavviri ijodkorlaridan so‘nggilari sifatida ardoqlanadi.

Ad.: *Қайюмов П. Тазкираи Қайюмий. – Т., 1998; Сулаймон Ҳ., Сулаймонова Ф. Алишер Навоий асарларига ишланган расмлар. XV–XIX асрлар. – Т., 1882; Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. – Т., 1991; Ҳакимов М. Навоий асарлари қўлёзмаларининг тавсифи. – Т., 1983.*

O.T.

KOSTYUXIN Yevgeniy Alekseyevich (1938, Sverdlov – 2006, Sankt-Peterburg) – etnograf, adabiyotshunos, folklorshunos. F.f.d-ri. (1988). K.ning “Adabiy va folklor an’analarida Aleksandr Makedonskiy” (Александр Македонский в литературной и фольклорной традиции. – M., 1972) “Hayvonot eposining tip va shakllari” (Типы и формы животного эпоса. – M., 1987) “Rus folkloridan ma’ruzalar” (M., 2004) singari monografiyalarida adabiyotshunoslik va folklorshunoslikning muhim masalalaridan bahs yuritgan. Xususan, “Adabiy va folklor an’analarida Aleksandr Makedonskiy” kitobining 1-bo‘limida “Navoiy va Jomiy dostonlarida Iskandar obrazi” fasli N.ning ijodi b-n bevosita aloqador.

Ad.: *Костюхин Е.А. Александр Македонский в литературной и фольклорной традиции. – М., 1972.*

Q.E.

KOTIBIY TURSHIZIY – Shamsiddin Muhammad ibni Abdulloh (t.y.n, Turshiz, Nishopur yaqinida – 1435, Astrobod), shoir, xattot. Zamonasining Mavlono Simiy degan mashhur xattotidan kotiblik san'atini o'rganib, bu sohada shuhrat qozongani uchun "Kotibiy" taxallusini olgan. K.T. 1410-y.da Hirot va Samarqandga safar qilgan 1412–1414-yy.da Hirotda yashagan. 1415–22-yy. da Astrobod, Mozandaron, Gilon, Hijozlarda yashagan va yana Hirotga qaytgan. Boysung'ur vafotidan (1433) keyin Tabriz, Isfahonga safar qilgan va oxiri Astrobodda muqim yashab qolgan. Qabri Astrbodda "Nuhgo'ron" go'ristonidadir.

Adabiy manbalarda K.T.ning mashhur asari sifatida "Shutur hujra" qasidasi tilga olinadi, ammo N. bu asar haqida hech narsa demagan. Vosifiy "Badoye' ul-vaqoye'"da N.ning shoirlarga K.T. ning yuqoridagi asariga javob yozishni buyurgani haqida ma'lumot bor. K.T. umri oxirida "X."ga ham tatabbu' qildi, lekin tugatishga muvaffaq bo'lmadi, – deydi N. davom etib yozadiki, mening fikrimcha, K.T.ga she'riyatga mayl shu darajada ediki, agar uning Husayn Boyqarodek murabbiysi bo'lsa va o'z umri biroz vafo qilsa edi, ko'p shoirlarning ko'nglini she'r yozishdan sovutib qo'yar edi (ya'ni g'oyat yaxshi she'rlar yozgan bo'lar edi). Har qalay insof b-n aytganda, she'rning barcha uslubida undan o'tadigan shoir yo'q, yaxshi fikrlari ko'p.

N. K.T. ijodidan uchta forsiy matla'sini va Astrobodda toun (vabo) kasal bilan og'riganida yozgan bir qit'asini keltiradi. "M.N."da To'tiy Turshiziy degan shoirning K.T. qasidalariga va Zohidiyning shoir "Tajnisot"iga tatabbu' qilganlari ham ta'kidlab o'tiladi.

N.ning o'zi ham K.T.ning 4 ta g'azaliga tatabbu' qilgan va bu g'azallari "D.F."ga kiritilgan.

Ad.: *Бертельс Е.Э. Навои и Джами. – М., 1965; Мирзозода Х. Таърихи адабиёти тожик. Китоби 2. – Душанбе, 1977.*

S.G'.

KOFIRBACHA – N. asarlari matnida juda kam qo'llangan arabcha-forsiy so'z. Lug'atlarda K. ma'shuqaga ishora deb izoh yozilgan. N. "N.Sh." devonining "Yer tutqali ul kofuri xudkom ko'ngulda, Yo'q menda ko'ngul o'ylaki orom ko'ngulda" degan matla' b-n boshlanuvchi, "Ko'ngulda" radifiga qurilgan 7 baytli g'azalda shunday ma'no va shaklda qo'llagan. Chunonchi:

Ko'nglumga dema zuhddin, ey shayxki, har kun,
Kofirbachaye may qilur oshom ko'ngulda.

Ad.: *Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Бердақ Юсуф. Навоий тили луғати. 2-жилд. – Т., 2022.*

B.R.

KOFIRI ISHQ – bu atama N. asarlarida ishqdan o'zga aql, hush, fikr, andisha, havas, din kabi barcha narsani inkor qiluvchi, moddiy olamdan uzilib, fano maslagini kasb etgan kishiga nisbatan qo'llanilgan:

Jomi mayda bo'ldi chun ul but jamoli jilvagar,
Kofiri ishq o'lg'amen, gar bosh ko'tarsam jomdin...
Kofiri ishq o'lg'an avlo demasa iymon so'zin,
Xo'b emas tasbih tori rishtayi zunnor aro.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. –Т., 2011; Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик, 3-жилд. – Т., 2011.*

Z.R.

KOSHG'ARIY YORMUHAMMAD SAVVOD Koshg'ar xattotlik maktabining namoyandalaridan. Olim va fozil, nasta'liq va nasx xatida ravon va chiroyli yozgan. "L.T." va "X."ni bir muqovada jamlab, Yorkent shahrida 1227/1812-y.da kitobat qilgan. – T., ShI. Inv. № 8817/ 11. 325 varaq. Aniq va ravon nasta'liq xati b-n Qo'qon qog'oziga yozgan.

Ad.:. *Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. – Т., 1991.*

Muh.A.

KOSHG‘ARIY MULLO ILMUDDIN IBN MULLO MUHAMMAD – Koshg‘ar xattotlik maktabining namoyandalaridan, olim, xatning yetti turida yozgan, “X.”ni 1245–46/1830–32-yy.da Koshg‘arda nasta’liq xatida kitobat qilgan.

Ad.: *Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар, – Т., 1991; Собрание восточных рукописей академии наук Узбекистан. VII. – Т., 1964; Т: ШИ, инв. 1934 в.*

Muh.A.

KOSHG‘ARIY SA’DUDDIN – Hirotning mashhur shayxlaridan. Jomiyning piri va qaynotasi, (vafoti, 1456) Jomiy uning qiziga uylangan. N. “N.M.”da yozishicha, K.S. boshda diniy ilmlarni puxta egallaydi, so‘ngra tasavvufga rag‘bati borligi uchun Nizomiddin Xomush suhbatlariga qatnashadi va unga murid tushib, shayxlik darajasiga erishadi. O‘z davrining shayxlaridan Zayniddin Xavofiy bilan ham muloqotlar qilib, undan ham tasavvuf sirlarini o‘rganadi. K.S. Xurosonda naqshbandiylik tariqatini yoyishda katta hissa qo‘shadi. N. “X.M.”da K.S.ni “qutbi tariqat va g‘avsi haqiqat” deya tilga oladi va o‘z davrida, “Naqshbandiya xojalari silsilasining” “komil va mukammil murshid”laridan bo‘lganini qayd etadi. K.S. qabri vafotidan keyin muqaddas ziyoratgohga aylangan. Shu bois bo‘lsa kerak, N. “M.N.” keltirishicha, K.S.ning xalifasi Mavlono Burujiyning qabri o‘z pirining yonida bo‘lsa, Abdurahmon Jomiyning ukasi Mavlono Muhammad Jomiyning qabri K.S. sufasida, uning ayog‘i saridadir. Jomiy “Nafahot ul-uns”da K.S. b-n bog‘liq bir qator voqealar va karomotlarni naql qiladi. N. ham “N.M.” da ularni keltirib o‘tadi. K.S.dan keyin uning silsilasini Jomiy, Burujiy va boshqa xalifalari davom ettirgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

Q.E.

KUDELIN Aleksandr Borisovich (1944, Moskva) – f.f.d-ri., akad. Olim, asosan, arab adabiyoti bilan shug‘ullangan bo‘lishiga qaramay, N. haqida bir qancha ilmiy ishlar e’lon qilgan. Uning “Алишер Навои – родоначальник узбекской классической литературы (к 575-летию со дня рождения)” (Известия Российской академии наук. Том 75. 2016. № 4, 5-11), “К 575-летию со дня рождения Алишера Навои (итоги и перспективы изучения жизни и творчества)” (Рукописи и литографированные издания произведений Алишера Навои в московских собраниях. Каталог. 2016. 14-21-206-207) va arab adabiyoti, Sharq adabiyotiga doir qator maqolalarida N. ijodi ham tahlilga tortilgan. 2016-y. 16-19 fevralda Moskvada bo‘lib o‘tgan “Алишер Навои и средневековый Восток” nomli N. tavalludiga bag‘ishlangan konferensiyada ma’ruza bilan ishtirok etgan. Maruzada N.ning shoir sifatidagi dahosi, Jomiy b-n munosabatlari Y.E.Bertels, A.A.Semyonov, V.V. Bartold, V.A.Borovkov ilmiy ishlari misolida yoritilgan. K.A.B. N. ijodining mavqeyi va ahamiyatiga urg‘u bergan.

Ad.: *Куделин А.Б. Алишер Навои – родоначальник узбекской классической литературы (к 575-летию со дня рождения) // Известия РАН. Том 75. 2016. № 4, 5-11; Куделин А.Б. К 575-летию со дня рождения Алишера Навои (итоги и перспективы изучения жизни и творчества). Рукописи и литографированные издания произведений Алишера Навои в московских собраниях.*

Каталог / Составитель и автор описания рукописей и литографий И.В.Зайцев. – М., 2016.

B.R.

KULLIYOT (ar. – butunliklar, to‘la narsalar) – Sharq kitobatchiligiga oid atama bo‘lib, “Mukammal asarlar to‘plami” degan tushunchani anglatgan. Shoir yoki adib asarlarining bir muqovaga olingan yaxlit, mukammal to‘plami. Muayyan bir qo‘lyozma, kitob to‘la ma’noda K. bo‘lishi u-n Sharq kitobat tarixida uzoq asrlar davomida shakllangan ma’lum an’anaviy qoidalarga tushirilgan. 1) K. hajmi va formati (o‘lchovi)dan qat’iy nazar faqat bir qo‘lyozma kitobdan iborat bo‘ladi; 2) qo‘lyozma tarkibida faqat bir shoir yoki adib merosining deyarli hammasi yoki asosiy qismi jamlanadi; 3) qo‘lyozma tarkibiga o‘sha shoir yoki adibning faqat bir turdagi emas, balki bir necha turdagi, m-n: lirik, epik, prozaik; ilmiy merosi kiritiladi; 4) qo‘lyozma tarkibiga kirgan asarlar mazmun va janr xususiyatlariga ko‘ra ma’lum tartibda joylashtiriladi; 5) qo‘lyozmani kitobat qilishga qancha muddat ketishidan qat’iy nazar uni boshidan oxirigacha faqat bir kotib ko‘chirib chiqadi. Mazkur qoidalarga amal qilib kitobat etilgan qo‘lyozmagina to‘la ma’noda K. hisoblanadi. Boshqa har qanday qo‘lyozmalar hajman ulkan bo‘lishiga qaramay K. bo‘la olmaydi. Chunonchi, Abulqosim Firdavsiy (941–1025) qalamiga mansub “Shohnoma” asari 120000 misradan iborat bo‘lib, ayrim qo‘lyozmalari qariyb 1000 varaqqa yaqinlashsa-da, K. bo‘la olmaydi. Chunki, u bir turdagi asardan iborat. Ko‘pchilik K.lar muallif vafotidan keyin kotiblar tomonidan tuzilgan. Bunga Sa’diy Sheroziy (1203–1292), Xusrav Dehlaviy (1253–1325), Abdulqodir Bedil (1644–1721) K.larini ko‘rsatish mumkin.

N. umrining oxirida o‘z asarlarning K.ini tuzdi va unga 26 asarini (faqat o‘zbek tilidagi asarlarini) jamladi. Bu K.ni shoir 1495–1500-yy.da mashhur xattot Darvesh Muhammad Taqiy ko‘magida amalga oshirdi. Unga shoirning “M.Q.”-dan boshqa barcha asarlari kiritilgan. (Istanbulda To‘pqopi kutubxonasida: inv № 808. Hajmi 802 varaqdan iborat). Keyingi asrlarda tasnif etilgan N. K.lari mukammal emas. Lekin uning asosiy yirik asarlari (“X.M.” va “X.”)ni o‘z ichiga olgani u-n K. deb yuritiladi. Keyingi asrlarda tuzilgan K.lar unchalik shuhrat qozonmadi. Lekin hozirgi vaqtda jahon qo‘lyozma fondlarida N. asarlari bo‘yicha tuzilgan kulliyotlarning olti qo‘lyozmasi ma’lum.

Ad.: *Ҳакимов М. Шарқ китобат ишида “куллиёт”нинг ўрни // Адабий мерос. – Т., 1988. – № 3 (45); Ҳакимов М. Шарқ қўлёзмаларига доир терминларнинг қисқа изоҳли луғати // Адабий мерос. – Т., 1983. № 3 (27; 1984. – № 1 (29); 1984. – № 2 (30); Нажиб Мойил Ҳаравий. Тарихи нусхапардозий ва тасҳиҳи интиқодий нусхаҳойи хаттий. – Теҳрон: Созмони чоп ва интишороти визорати фарҳанг ва иршоди исломий, 1380.*

Muh.A.

KULFAT (Taxallusi; asl ismi ma’lum emas, XVIII asr oxiri – XIX asr 1-yarmi Toshkent) – shoir. Uning nomi XX asr oxirlarigacha ma’lum bo‘lmagan. 1979-y.da O‘zR FA Qo‘lyozmalar institutiga K.ning tatabbu’lardan iborat (inv. №2030), 1982-y.da esa 300 dan ziyod she’larini o‘z ichiga olgan devonlari (inv. №2852) kelib tushgan. Shundan keyin institut katta ilmiy xodimi M.Hamidova ularni o‘rganib, nashrga tayyorlaydi. Izlanishlar natijasida olima turli bayozlardan K.ning yana 9 g‘azali, 1 forsiy g‘azali va ruboiysini aniqlaydi. Bu ma’lumotlar uning o‘z davri adabiy hayotida taniqli shoir bo‘lganligini ko‘rsatadi.

K. ijod yo‘lida N.ni o‘ziga ustoz deb bilgan, unga ergashgan, undan mahorat sabog‘ini olgan. Ulug‘ shoir asarlari mutolaasi, ulardan ta’sirlangani natijasida uning 162 ta g‘azaliga tatabbu’ qilgan. Ularda N. g‘azali vazni, shoir qo‘llagan qofiya va radiflar saqlangan, mavzu va g‘oya rivojlantirilgan va boyitilgan. Bu haqda u shunday yozadi:

Javob o‘lmish Navoiyning so‘zina
bul g‘azal, Kulfat,
Meni bedil senga joy o‘ynamoq
birlan yaraydurman.

K., jumladan, N.ning:

Orazin yopqoch ko‘zumdin sochilur
har lahza yosh,
O‘ylakim, paydo bo‘lur yulduz,
nihon bo‘lg‘och quyosh, –

bayti b-n boshlanadigan mashhur g‘azaliga quyidagicha tatabbu’ yozadi:

Jonima titratma soldi yuz ochib ul bag‘ri tosh,
Ishqidin har kun tulu’ etgan kibi titrab quyosh.

K. N.ning “Vah, naylay, jon edi, chiqdi samandin o‘ynatib” misrasi b-n boshlanadigan g‘azaliga muxammas ham bog‘lagan.

Ad.: *Кулфат. Девон. – Т., 1987; Ҳамидова М. Шоир Кулфат // Кулфат. Девон. – Т., 1987.*

E.O.

KUMAYT (a.s.) – qoraga moyil qizil ot, qora to‘riq ot, chopqir ot, umuman, ot. N. “F.Sh.” dostonining xotima bobida istiora yo‘li bilan shoir qalamini K.ga tashbeh etadi:

Kumaytim ro‘ya chun gardung‘a soldi,
Atorud kilk-u sanduqi usholdi.

“Qora to‘rig‘im (ya’ni qalamim) ko‘kka qadam qo‘yib, Atorud (o‘tmish hay’at ilmida falak kotibi, qalam ahli homiy sifatida mashhur bo‘lgan Merkuriy sayyorasi)ning sandig‘i sinib, qalami mayda-mayda bo‘ldi).

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011.*

M.A.

KUMOYI MULLO TO‘XTA – XIX asr ikkinchi yarmida Koshg‘arda yashagan. Koshg‘ar xattotlik maktabi vakili. N.ning “M.N.” asarini Yorkand shahri yaqinida 1224/1809–10-yy.da ko‘chirgan.

Sankt-Peterburg FA Sharqshunoslik instituti. Inv. № A 451-1, 112-varaq.

Ad.: *Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар, – Т., 1991; Собрание восточных рукописей академии наук Узбекистан. VII. – Т., 1964.*

Muh.A.

“KUNTU KANZAN…” – Irfoniy adabiyotda ham, mumtoz asarlarimizda ham doimiy e’tibor qaratiladigan oyat va hadislar bor. Ular ruh tarbiyasining asosini tashkil etadi. Shulardan biri: “... kuntu kanzan xafiyyan fa xalaqtul xalqa”, ya’ni “Men yashirin bir xazina edim, bilinishni istadim va meni bilsinlar deya maxluqotni yaratdim”, qudsiy hadisidir.

N. ham ushbu hadisga lirikasida, “L.T.”, “H.A.”, “M.Q.” kabi asarlarida alohida e’tibor qaratadi. Jumladan, “V.”da:

Na ko‘k edi-yu na ko‘k ichra yor,
na yer uzra mulk,
Na mulk ichida diyor-u na ul
diyorda yor.

deya ahadiyat olamidan xabar beradi hamda “yashirin xazina” siridan ogoh etadi: “… “kuntu kanzan maxfiyyan faahbabtu an u’rafa faxalaqtul xalqa” bashorati birla andog‘ zohir bo‘ldikim, bu mavjudot qobiliyati qadig‘a vujud kisvatin solmoqdin maqsud inson vujudi erdikim, “xammartu tiynata odama biyadayya arbaina sabohan” bu ma’nig‘a mash’ardur. “Inna araznal-amonata alas-samovati val-arzi val jibola faabayna an yahmilnaho” bu da’viyg‘a shohid”. Tasavvuf manbalarida ushbu hadisga muhim ahamiyat qaratilib, batafsil sharhlar yaratilgan. Mutasavviflarning nazdida, maxfiy xazina bo‘lgan Alloh azza

va jalla “an urafa”, ya’ni tanilishni “ahbabtu”, ya’ni hub, muhabbat ila ixtiyor etgan. Shunday oyatlardan biri: “Men jin va insni o‘zimga ibodat qilishlari uchun yaratdim (Zoriat: 51/56)”dir. Najmiddin Kubro hazratlari: “Menga ibodat qilsinlar” ifodasini Ibn Abbos (r.a.) “Meni bilsinlar”, deya izohlagan”, – deydi. Bu istakka javob beruvchi esa maxluqotlarning gultoji – komil inson edi. Insonning yaratilishi bilan olamlarning yaratilishi yakun topdi. Tajalligoh bo‘lgan olamning jilosi Inson bo‘ldi va borliqlar ichra juz’iy iroda va idrok etish qobiliyati ham unga berildi. “Robbul olamin” – butun olamlarni yaratgan buyuk Naqqoshni ko‘rish uchun faqat zohir ko‘zi emas, balki haqiqiy ko‘z – basirat, ko‘ngil ko‘zi lozim edi. “Kuntu kanzan maxfiyan” siri “H.A.”-da shunday izohlanadi:

Sen eding-u bas yana mavjud yo‘q,
Jilva qilib husnunga o‘z husnung-o‘q...

Muncha g‘aroyibki misol aylading,
Borchani mir’oti jamol aylading.

Ganjing aro naqd farovon edi,
Lek boridin g‘araz inson edi.

Ulamolar barcha olamlarni besh olamga birlashtiradi. Ilk olam N. ta’kidlaganidek, Undan o‘zga mavjud bo‘lmagan, Zoti Haqdan iborat mutlaq g‘ayb – Lohut olamidirki, “Men yashirin xazina edim...” mana shu olamdan xabar beradi. Butun yaratiqlar – “mir’oti jamol” bo‘lsa-da, o‘n sakkiz ming olamni bor etishdan maqsad Inson edi. Zero, Qur’oni Karimda ham shunday deyiladi: “Biz bu omonatni (chin bandalik omonatini) osmonlarga, yerga va tog‘larga taklif etdik. Ular uni ko‘tarishdan bosh tortdilar va undan qo‘rqdilar. Inson esa uni o‘z zimmasiga oldi. Darhaqiqat, u o‘ziga zulm qiluvchi va nodondir (Ahzob: 33/72)”. Arz-u samo, buyuk tog‘lar qo‘rqib qabul etmagan omonatni ahli zohir – Shariat irfoni, ahli botin esa – Ishq, deya tafsir etdilar. “H.A.”da N. laduniy ramz va ishoratlar ila bu yaratilish tarixini shunday sharhlaydi:

G‘ayri insonkim qilib oni qabul,
Ham zalum aylab xitobin, ham jahul.

Chun xaloyiqdin oni mumtoz etib,
“Kuntu kanzan” sirrig‘a hamroz etib.

Boshig‘a qo‘yub hidoyat tojini,
Qismati aylab sharaf me’rojini.

“L.T.” dostonida esa:

Emas erdi maqsud juz odamiy,
Ki Haq sirrining bo‘lg‘ay ul mahrami.

Baridin g‘araz garchi inson edi,
Anga dag‘i maqsud irfon edi.

Bu so‘z sidqig‘a dag‘i beta’n-u tanz,
Dalolat qilur oyati “kuntu kanz”.

Yaratilishdagi muhim qonuniyat irfon va ishq edi. Adabiyot u-n ham ular asosiy mavzudir. Irfon, ma’rifat haqida ko‘p fikr-qarashlar bildiriladi, biroq anglamoq kerakki, irfoniy adabiyotda irfon – nafsini tanish hisoblangan.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Вақфия. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Нажмиддин Кубро. Тасаввуф ва ҳаёт. – Т., 2004.*

Z.R.

KUNYA (ar. – laqab, nom) – kishining avlod-ajdodi, nasl-nasabini bildiruvchi, kishi ismiga hurmat yuzasidan qo‘shib ishlatiluvchi so‘z, nom. M-n, abu – ota, umm – ona, ibn – o‘g‘il, bint – qiz. Abu Jahl, ibn Sino, Robiya binti Ka’b kabi. Bu arab badaviylarining odati bo‘lib, ular to‘ng‘ich farzandlarini abu va umm orqali o‘zlariga nisbat berar edilar. Bolalariga esa ibn va bint

so‘zlari vositasida murojaat qilar edilar. Arab xalqlari orasida bir-birlariga K. orqali murojaat qilish hozir ham keng tarqalgan. Islom dini bilan birga K. bizga ham kirib keldi. U bizda ko‘proq hurmat-ehtirom ma’nosida qo‘llangan: Abulfazl, Abu Hafs va h.k. K., asosan, ziyolilar va ulamolar orasida tarqalgan. N. ham olim-u adiblar, shayx-u ulamolar, shoh-u amaldorlarni K. bilan tilga oladi. M-n, “Kuniyati va oti Abdulmajd binni Odamdur; Hafsa binti Sirrin; ummi Hasson, ummi Muhammad volidayi Shayx Abu Abdulloh Xafif.

Ad.: *Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. – Т., 2006; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 2. – Душанбе, 1989.*

E.O.

KUTUBI OSMONIY – Ilohiy kitoblar. K.O. muqaddas kitoblar deb ham yuritiladi. Islom dini ta’limotiga ko‘ra, Alloh o‘tgan payg‘ambarlarning ba’zisiga kitob, ayrimlariga maxsus sahifalar nozil qilgan bo‘lib, ularning jami to‘rt kitob va yuz sahifadan iborat. Muso (a.s.)ga Tavrotni, Dovud (a.s.)ga Zaburni, Iso (a.s.)ga Injilni va Muhammad (s.a.v.)ga Qur’on kitobini nozil qilgan. 100 sahifadan 10 sahifani Odam (a.s.)ga, 50 sahifani Shis (a.s.)ga, 30 sahifani Idris (a.s.)ga, 10 sahifani Ibrohim (a.s.)ga yuborgan. Qur’ondan boshqa K.O.lar bir yo‘la, bir daf’ada, Qur’on esa Jabroil farishta vositasida 23 yil mobaynida oyat-oyat, sura-sura shaklida nozil bo‘lgan.

N. asarlarida bu to‘rt K.O. haqida ko‘p ma’lumotlar mavjud. Jumladan, N. “T.A.H.” asarida ba’zi payg‘ambarlarga alohida sahifalar nozil bo‘lganidan xabar bersa: “...va Bori taolo Shisg‘a nubuvvat karomat qildi va anga sahifa nozil bo‘ldi..” Idris (a.s.) uchun “... o‘tuz sahifa nozil qildi”, Muso (a.s.)ga Tavrotning nozil bo‘lishi va uning qirq jilddan iborat bo‘lgani to‘g‘risida quyidagilarni bitgan: “Yana Muso (a.s.) borib munojot qildi. Tavrot nozil bo‘ldi va ul qirq mujallid erdi. Va aning hukmin qavm eshittilar va qabul qilmadilar”. Dovud (a.s.) zikrida unga Zabur irsol qilingani, u Zaburni baland hamda yoqimli ovoz bilan o‘qiganda hayvonlar-u qushlar, ins-u jins yig‘ilib tinglagani va behol bo‘lganliklari qayd etiladi. Iso (a.s.)ga Injilning tushirilgani haqida N. shunday yozadi: “Chun Injil Iso (a.s.) ga nozil bo‘ldi... Bayt ul-Maqdisga kelib ...amri ilohi bila xalqni Tengri taolo amrig‘a da’vat qildi”.

“H.A.”ning ilk maqolatida iymonning uchinchi sharti bo‘lgan K.O.ga ham iymon keltirish shart ekanligini aytadi:

Angla uchunchi kutubi osmon,
Tengri so‘zi bil borisi begumon.

Qaysi kutub, har biri daryoyi jarf,
Har so‘zi bu bahrda durri shigarf.

Ya’ni, iymonning uchinchi sharti bu osmondan tushgan kitoblar bo‘lib, ulardagi hamma so‘zlar, shubhasiz, Tangri kalomidir. Ularning har biri kitob emas, go‘yo bepoyon dengiz bo‘lib, har bir so‘zi katta bir durdir.

“S.I.” dostonining na’t bobida Muhammad (s.a.v)ning sifoti va nishoni Qur’oni Karimdan oldin nozil bo‘lgan K.O.da ham mavjudligini ta’kidlaydi:

Chu Musog‘a “Tavrot” etib Haq bayon,
Sanga ul bayon ichra mo‘jiz a’yon.

Bo‘lub chunki Dovud qismi “Zabur”,
Sening mo‘jizing anda aylab zuhur.

Chu Isog‘a “Injil” nozil bo‘lub,
Haq anda sifotingg‘a qoyil bo‘lub...

Nechakim kutubi osmoniy kelib,
Borisinda sendin nishoni kelib.

N. asarlarida K.O. tushunchasidan badiiy maqsadlarda ham foydalanilgan. Shoir “M.”idagi maktublardan biri bunga misol bo‘la oladi. Unda N. o‘ziga yuborilgan maktub va undagi to‘rt g‘azal haqida so‘z yuritadi va mubolag‘a vositasida g‘azallarni ta’riflab, ularni K.O.dan

asar beruvchi she’rlar sifatida baholaydi: “To‘rt g‘azalkim, to‘rt javohiri insoniydin xabar berur erdi, balki to‘rt Kutubi osmoniydin asar yetkurur erdi-yetishti”.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Носириддин Бурҳониддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. – Т., 1991.*

Q.E.

KURAYI XOK – yer yuzi. N. asarlarida uchraydigan ibora. Jumladan, shoir “H.A.” dostonining 2-bobida Alloh taoloning yaratuvchilik qudrati va hikmati haqida mulohazalarini bayon etayotganda, olamning tuzilishiga to‘xtaladi. Alloh K.X. – Yerni sokin qilib, falak doiralarini sayr etuvchi qilib yaratgani, falak va dengizlarning o‘rni almashib ketsa ham, ularning markazi Yer kurrasi bo‘lib qolaverishini tasvirlaydi:

Ayladi sokin kurayi xokni,
Soyir etib davrayi aflokni.

Toki muhit o‘rnig‘a aflok erur,
Markazi oning kurayi xok erur.

2-3-munojotlarda Alloh o‘z qudrati b-n falakning tez aylanuvchi, K.X.ni esa sekin aylanadigan, uni insonlar uchun sokinlik yeri, keng manzilgoh qilib yaratgani, 5-na’tda me’roj tunida Muhammad (s.a.v.) u-n Yer dumaloq shakldagi idishga aylanib, tun qorong‘uligi unda xushbo‘y anbar vazifasini o‘tayotgani haqida so‘z boradi. 12-bobda esa fikr tarozisida “X.” – “Besh xazina”ni o‘lchayotgan Nizomiyga Osmon tarozi pallasi, K.X. – Yer esa botmon toshi bo‘ldi, tarzida go‘zal tashbeh yaratilgan:

Fikrati mizoni bo‘lub xamsasanj,
“Xamsa” dema, balki degil: “Panj ganj”.

Kaffayi mizon anga aflok o‘lub,
Botmoni toshi kurayi xok o‘lub.

N. “S.S.” dostonida K.X.ni bir necha o‘rinda qo‘llaydi. N.ga ko‘ra, jahon bir katta kesak bo‘lib, uning aksar qismi suv ichiga yashiringan, poydevorsiz tuproqning ishi mushkul bo‘lganidek, suv ostidagi kesakning ham asosi yo‘qdir, deydi:

Bir ulug‘roq kesak erur bu jahon
Ki, erur ko‘pragi suv ichra nihon.

Kurayi xok keldi bebunyod.
Suv ichinda kesakka ne bunyod?!

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8 жилд. – Т., 2011.*

S.O‘.

KURELLA Alfred (taxallusi – B.Sigler, V.Rebig, A.Bernad; 1895, Bjeg, Polsha – 1975, Berlin) – nemis yozuvchisi, publitsist, tarjimon va jamoat arbobi. Falsafa fanlari d-ri, Germaniya san’at akademiyasi a’zosi. Rossiyada yashagan (1934–54). Fashizmni fosh etish K.A. ijodining asosiy mavzusi sanaladi. “Gronau hujjatlari” (1954), “Dimitrov Geringga qarshi” (1964), “Katta o‘yindagi kichik piyoda” (1961), “Inson o‘zini o‘zi yaratadi” (1958), “Tarqoq ocherklar” (1961) va boshqa asarlar muallifi. N.Ganjaviy, V.G.Belinskiy, Chernishevskiy, I.S.Turgenev, T.Shevchenko, A.Kuleshov, L.Aragon, N.Hikmat va “Manas” qirg‘iz xalq eposi, armanlarning “Sosunli Dovud” asarlaridan qilgan tarjimalari K.A.ning rus, italyan, fransuz, fors va turkiy tillardan bir qanchasini yaxshi egallaganini ko‘rsatadi, shuningdek, o‘z vaqtida dunyo hamjamiyati tomonidan e’tirof etilgan.

Tarjimachilikda katta tajriba to‘plagan K.A. N.ning ba’zi g‘azal va ruboiylari, “F.Sh.” dostonidan parchalar, “M.L.”, “M.Q.” asarlarini nemis tiliga o‘girgan.

Ad.: *Абдуллажонов А. Навоий бадииятини немисча таржималарда қайта яратиш ва табдил қилиш. Дисс. канд.филол. наук. – Т., 1998.*

S.O‘.

KO‘Z – K. lirik qahramonning ham zohir, ham botinini tasavvur qilishda zarur timsollardan biridir. K.siz badiiy qahramonning nafaqat portreti, balki ichki olami haqida ham aniq tasavvur yaratilmasdi. “Nahl” surasining 78-oyati shunday boshlanadi: “...va shukr qilishingiz uchun sizlarga quloq, K.lar va dillarni berdi (16:78)”. Ko‘rinadiki, Qur’oni Karimda K. insonga berilgan ulug‘ ne’matlar qatorida sanalmoqda. Birgina “An’om” surasining 46, 50, 99, 103, 104, 110-oyatlarida K. haqida to‘xtalinib, K.ga xos fazilatlar ta’kidlanadi. Alloh insonni yaratganidek, uning quloq, K. va dillarining ham ijodkoridir. Alloh tomonidan insonga bu in’om-u tuhfalar uning e’tiqod va iymoni evaziga taqdim etilgan. Basharti inson o‘z e’tiqodidan chekinsa, u holda Alloh quloq, K. va dil (yurak)larni muhrlab (muzlatib) qo‘yish qudratiga qodirdir. Majoziy ifodaning betakror namunasi bo‘lmish Qur’oni Karimda zohir va botin K.i xususida so‘z boradi. Va ta’kidlash joizki, botin ko‘zi, ya’ni qalbning ta’rifi ko‘proq o‘rin egallaydi. Bu ifoda, albatta, badiiy adabiyotga ham ko‘chgan. “N.M.”da o‘qiymiz: “Junayd debdurki, himmatingni Allohu azza va jalla tomonga qarat. Zinhor Allohu azza va jallani mushohada qiladigan basirat ko‘zingni undan boshqasiga qaratmaginki, Allohning nazaridan qolasan”. Botin K.i nafsning tarbiya natijasida riyozat orqali qalbga aylanishi va ilmi laduniyning berilishidir. Tasavvufiy manbalarda botin ko‘zi alohida izohlanib, bunday martaba sohiblari basirati ochiq Haq yo‘lchilari sifatida qaralgan. Qalb ko‘zi, ya’ni basirat haqida Qur’onda bunday deyilgan: “Axir ular (ya’ni, Makka mushriklari) Yer yuzida sayr qilib – aylanmaydilarmi, (ana o‘shanda) ular uchun dono dillar, tinglaydigan quloqlar bo‘lur edi. Zero, K.lar ko‘r bo‘lmas, ko‘kraklardagi ko‘ngillar ko‘r bo‘lur (22/46)”. Demak, suluk ahli ko‘ngil ko‘rligidan qo‘rqishgan va adabiyot ham mana shu maslakni targ‘ib qilgan. N. “N.M.”da basirat, botin ko‘ziga e’tibor qaratib, bu masala xususidagi valiylar fikrini keltiradi: “Shayx ul-islom debdurki, nafsni debdur Shibliy bu oyat tafsiridakim, “mo‘minlarga ayting, ko‘zlarini to‘ssinlar, avratlarini saqlasinlar”. Va debdurki, “zohir ko‘zni haromlardan, botin ko‘zni esa, Allohdan boshqasiga nazar solishdan saqlang!”

Demak, badiiy adabiyotda ma’shuqaning go‘zal K.i ta’rif-tavsifi bilan birga imtihon dunyosida nafsini tarbiya etishga mujodala etayotgan Odam avlodlarining qalb K.i haqidagi qarashlar ham o‘rtaga tashlangan. Tasavvuf ahliga ko‘ra, basiratning ochilishi avval K.dan boshlanadi. Keyin navbatma-navbat yuz, ko‘krak va butun vujudda yuzaga chiqadi. Botin ko‘zining ochilishiga ishq-u ma’rifat sabab bo‘lar ekan, bunda ilk “aybdor” sifatida K. nishonga olinishi ham tabiiy. Zohir K. ko‘rgach, ko‘ngilda ishq boshlanadi. Va alaloqibat G‘azzoliy aytganidek, aqldan olisda shunday bir davra bordurki, unda boshqa bir K. – qalb ko‘zi ochiladi. G‘ayb dunyosi ana shu K. b-n ko‘rilib, mushohada qilinadi. Va kelajakda voqe bo‘ladigan, lekin aql anglashga ojizlik qiladigan ayrim hodisalarni basirat oldindan oydinlashtiradi. Botin K.i irfon ahli tomonidan deyarli bir xilda anglangan va izohlangan. Lekin ularning hammasi uchun Qur’oni Karim oyatlari asos bo‘lgan. K. istiloh sifatida Allohni mushohada etish, deya sharhlanadi. Ushbu ma’noda ham ko‘proq qalb ko‘zi nazarda tutilgan.

Ko‘z-u ko‘nglumdin balolarg‘a
yo‘luqtum, koshki
Itsa besomon ko‘ngul, ko‘r o‘lsa
yig‘lab zor ko‘z, –

deydi N. hazratlari ham. K. va ko‘ngil obraz o‘laroq yonma-yon keladi. Va biri ikkinchisini to‘ldiradi. Mushtaraklikda mukammallik hosil qiladi.

N. K. timsoliga murojaat qilganda, uning turli qirralarini ochishga erishadi. “G‘.S.”ning dast-

labki g‘azallaridan birida ajoyib talqinga duch kelamiz:

Ko‘zga to kirdi xayoling, sovug‘ ohim vahmidin,
Bog‘lamishmen qo‘ryo har sori mujgondin ango.

K.ning moddiyligi ma’lum. N. mavhumot bo‘lgan xayolni ko‘ngilga emas, K.ga kiritadi. Va uni asramoq uchun kipriklari b-n o‘raydi. G‘alati holat, oshiq o‘z mujgonlari ila ma’shuqa xayoli kirgan K.ni asrab-avaylab qolmoqchi va uni o‘z himoyasiga olmoqchi. Zotan mujgon – kiprik K. uchun himoyachi ekani tabiiy, bir so‘z b-n aytganda, Alloh mo‘jizasi, bu tabiiy hodisa orqali kechinmani bundan ortiq sharh g‘azallari uchun yetakchi timsollardan biriga aylangan. Zero, ma’shuqa ko‘ziga ishora orqali turli holatlar tasvirga tortiladi, fikrning ta’sir kuchi benihoya ortadi. K. – shahlo, K. – chiroy, K. – go‘zal, K. – chashma, K. – ko‘zgu, K. – fitna, K. – chaqmoq, K. – jallod, K. – makr, K. – ayni paytda najotkor va zulmkor, unda hamisha ikki qutb: ijobiy va salbiy holat mavjud. N. K. timsoliga murojaat etganda, birgina timsol bilan chegaralanib qolmaydi, balki K. b-n bog‘liq boshqa timsollar ham tasvirga jalb etiladi. Yuz, lab, qosh, kiprik, qoboq, yonoq, iyak va boshqalar birgalikda K.ning mohiyatini to‘laqonli tasavvur etishga yordam beradi. Bunday baytlar devonda ko‘plab uchraydi:

Oshkor aylab yuzin, ko‘zumni hayron ayladi,
Yoshurun oldi ko‘ngul ko‘zumni hayron aylagach.

Baytda ma’shuqa ko‘zi emas, balki oshiq ko‘zi yetakchi o‘ringa chiqarilmoqda, ma’shuqa yuzi oshiq ko‘zini hayron etmoqda. Xullas, tahlil etilayotgan baytda bosh g‘oya yuz va K. timsollari atrofida qurilib, ajoyib tasvir amalga oshirilgan. Yana bir o‘rinda o‘qiymiz:

Sayd o‘ldi ko‘ngul ko‘zlaringga, vah, qutulurmu,
Bir qushki, aning qasdida bo‘lg‘ay iki sayyod.

N.ning har yangi satrida o‘zga bir ifoda, yangi bir badiiy topilma mavjud. Ko‘ngilni K.lar mahv etadi. Uning qutilishiga imkon yo‘q, chunki ikki ovchi sayd etadi. Quyidagi baytlarda ma’shuqa holi K. timsoli vositasida yanada oydinlashadi:

Ne tong majnunlug‘umkim, jilva aylar,
Ko‘zumga lahza-lahza bir parizod.

Buning sababi insonni bir-biriga yaqinlashtiruvchi omillardan asosiy vosita K. bo‘lib, uning ko‘rish va his qilishda boshqa a’zolardan ko‘ra imkon va imtiyozi ko‘p, shu bois yetakchi tabiatni namoyon etadi, uning joziba kuchi ayricha qudratga daxldorligi ila alohidalikka ham egadir. Shuning uchun ham N. devonlarida K. radif darajasiga ko‘tarilgan. “G‘.S.”dagi 216-g‘azalning radifi K. (Yordin ayrilg‘ali shaydo ko‘ngul, bexob ko‘z, Har zamon zohir qilur savdo ko‘ngul, xunob ko‘z), 218-g‘azal “ey qorako‘z” (Yo‘q-ki ul ko‘z qoradur husnung aro, ey qorako‘z, Kim qoshing dag‘i erur asru qaro, ey qorako‘z), 416-g‘azal (Oncha kavkab to‘kti shomi g‘am xayolingdin ko‘zum, Kim yorudi oqibat subhi visolingdin ko‘zum, Yuzung g‘amidin erur abri navbahor ko‘zum, Ne ayb, yer yuzini qilsa lolazor ko‘zum), 434-g‘azal (Yuzung g‘amidin erur abri navbahor ko‘zum, Ne ayb, yer yuzini qilsa lolazor ko‘zum)lar esa “Ko‘zum” radiflidir. Shuningdek, devondan “Ey qorako‘z” radifli 2 ta ruboiy ham o‘rin olgan. “N.Sh.” devonida ham 220-g‘azal (Bo‘lmas qora ko‘z eldin tutmoq kishi vafo ko‘z, Sendin netib vafo ko‘z tutqaymen, ey qaro ko‘z), 221-g‘azal (Yopilmas gar menga qonlig‘ sudin ko‘z, Senga lekin ochilmas uyqudin ko‘z)lar “ko‘z”, 399-g‘azal (Loladek yuzung xayolidin to‘la qondur ko‘zum, Balki lola jomidek qon ichra pinhondur ko‘zum) “ko‘zum” radiflidir. “B.V.”da 206-g‘azal (To‘kti qonimni – mening sori chu ochti yor ko‘z, To‘kmayin qon naylasun ul qotili xunxor ko‘z) “ko‘z” radifli, so‘nggi devon “F.K.”da esa 203-g‘azal (Ey sanga xunrez mujgon-u balo angez ko‘z, Bizga mujgoning sinoni zaxmidin xunrez ko‘z), 218-g‘azal (Ko‘nglum oldi yor, chun yuziga boqib turdi ko‘z, Vahki, oldurdi ko‘ngul, har kimsakim oldurdi ko‘z)

lar “ko‘z”, 433-g‘azal (To o‘yuldi xanjari hijron bila giryon ko‘zum, Ul tanur o‘ldiki, zohir ayladi to‘fon ko‘zum) esa “ko‘zum” radifi bilan kelgan.

Mutasavvif shoirning lirik qahramon holini bayon qilishda K. timsolidan foydalanish mahorati nasriy asarlaridagi fikr-qarashlari orqali dalillanadi. “…ko‘zlarin basirat sham’i yoritg‘onlar dunyo sori ko‘z solmaydurlar va ko‘ngullarin hidoyat ziroli oritg‘onlar olam mehrini zarrayi ko‘ngulga olmaydurlar”, – deydi so‘nggi asarida.

Lirik qahramonlarning ma’naviy maqomini belgilashda ham K. muhim timsoldir. Mashoyixlarga ko‘ra, zohid va orif shunday farqlanadi: “Zohid Haq taoloning so‘zlariga mashg‘ul bo‘lg‘ay, orif Haq taoloning o‘ziga mashg‘ul bo‘lg‘ay. Zohid xalqni ilmi zohir birla da’vat etgay, orif xalqni ilmi botin birla da’vat qilg‘ay… Zohidning ko‘zi beg‘am bo‘lg‘ay, orifning ko‘zi purnam bo‘lg‘ay. Zohidning ko‘ngli qatig‘, orifning ko‘ngli yumshoq bo‘lg‘ay. Zohid pulga boqg‘ay, orif Haqqa boqg‘ay… zohidning ko‘zi hushyor, ko‘ngli g‘aflatda, orifning ko‘ngli bedor, ko‘zi g‘aflatda bo‘lg‘ay. Zohidning tili zikrda bo‘lg‘ay, orifning dili zikrda bo‘lg‘ay. Zohid elning aybini ochg‘ay, orif elning aybini yopg‘ay”. N. ijodiyotida K. timsolini tahlil qilishda, albatta, janr xususiyatlarini ham inobatga olish zarur. M-n, “N.M.”da ko‘proq botin ko‘zi ta’riflari keltiriladi. Valiylar tilidan K.ga oid oyatlar sharhlanadi: “Murta’ish debdurki, Abu, Abdulloh Hazramiydin tasavvufni savol qildim va yigirma yil erdikim, so‘z demaydur erdi. Manga Qur’on bila javob berdi va bu oyatni o‘qudiki, “mo‘minlar orasida Allohga bergan va’dalariga sodiq kishilar bordir (Ahzob: 23). Dedim: alarning sifati nechukdur? Dedi: “ko‘zlari o‘zlariga qaytmaydi, dillari bo‘m-bo‘sh bo‘lib qoladi (Ibrohim: 33)”. Dedim: alarning mahali qaysi ahvoldindur? Dedi: “albatta, taqvodorlar jannatlarda, Qodir podshoh huzuridagi rozi bo‘lingan o‘rinda bo‘lurlar (Qamar: 55)”. Dedim: orttur. Dedi: “o‘zing aniq bilmagan narsaga ergashma. Chunki quloq, ko‘z, dil – bularning barchasiga inson mas’uldir (Ibrohim: 36)”. Ko‘rinadiki, insonning ko‘ziga yuklanadigan vazifalarni to‘g‘ri belgilash nafs tarbiyasida muhimdir. “M.Q.”da esa irfoniy xulosalar beriladi.

K. timsoli turli badiiy unsur va tasvirlarni o‘zida mujassam etadi. Zero, K.ning vazifasini tushuntirishda, lirik qahramon holatining bayonida ular zarur hisoblanadi. Ashk – sirishk, ya’ni K. yoshi badiiy unsurlariga K. munosabati ila ko‘p hamda xo‘b murojaat etiladi. Bu esa K. timsoli tasvirining ta’sirli ifodasi uchun muhim qirralarni namoyon etadi va K. timsoli badiiyatini mukammal ta’minlashga xizmat qilgan.

Ko‘z firoqingda oqardi-vu sirishki qurudi,
Yomg‘uri bo‘lmas, agar ayni bayoz o‘ldi bulut.

K. ma’shuqa firoqida oqarib, sirishki – K. yoshi tamoman quribdi. K.ning oqarishi tasavvurga sig‘ishi qiyin holatlardan. Bunda hijronning oliy nuqtasida nolayi girya qilgan oshiqning dardli holatini ko‘ramiz. Bunda Yusuf (a.s.)dek farzandi dog‘ida kuygan ota fig‘oni bo‘lishi kerak. Zero, Qur’oni sharifda shunday deyiladi: “Keyin ulardan yuz o‘girib, dedi: “Ey bechora Yusuf-a!” G‘am-alam yutaverib u zotning K.lari oqardi (ojiz bo‘lib qoldi). (Shunda o‘g‘illari): “Alloh nomiga qasamki, sen to ramaqijon bo‘lib qolguningcha yo bir yo‘la halok bo‘lguningcha, Yusufni eslayveradigan bo‘lding”, dedilar (Yusuf: 84-85). Ko‘z haqidagi noyob badiiy topilmalar uchun mana shu kabi oyat va hadislar asos bo‘lgan. Yig‘i, yig‘lash, yig‘lamoq K. bilan chambarchas bo‘lib, zotan K. yig‘laydi, K. – K. yoshi to‘kadi. N. she’riyatida bu hodisalar tasviri istagancha topiladi, goho qalbning, ko‘ngilning, jigarning, bag‘irning xos yig‘lashlari ham nazardan soqit etilmagan. N. kulliyotida “Yig‘lamoq”, “Yig‘lagil”, “Yig‘larmen”, “Yig‘lagay” kabi radifli g‘azallarning borligiyoq bu holning insoniyat kamolotidagi rolini belgilaydi. N. g‘azallarida yig‘i ta’rifini topgan baytlar miqdori ham talaygina:

Demangiz ahbobkim, qilmasmusen
bas yig‘lamoq,
Kim manga Tengri nasib etmish
tuganmas yig‘lamoq.

Bu kabi tasvirlar faqat lirik qahramon emas, balki shoir shaxsiyati haqidagi qarashlarimizga ham oydinlik kiritadi.

Xulosa qilib aytganda, adabiyotda K.ning maftun etuvchi, sehrlovchi kuchiga alohida e'tibor qaratiladi. Jodu va sohir so'zlari Kashmir joy nomi bilan yonma-yon kelib, "Kashmir jodusi", "Joduyi Kashmir", "Sohiri Kashmir" iboralarining shakllanishiga zamin yaratgan. O'zbek adabiyotida "jodu ko'z", "jodu qaroq" "g'amzasi jodu" va shunga o'xshash boshqa shu xil tashbehlarning paydo bo'lish tarixi ham aynan Hind, Kashmir, Xitoy, Chin, Mochin singari qadimiy yurt nomlari bilan bog'liq. Aytish mumkinki, Chin – Xitoy, Hind, Kashmir, Xo'tan, Mochin kabi yurtlar yonida Turkiston, Totor, Mo'g'ul, Rum, Badaxshon, Adan, Ajam, Turk, Dashti Qipchoq o'lkalarining qo'shiluvi ham xarakterlidir. Jumladan, bu o'lka va elatlar qatorida misr, chig'atoy, o'zbek, mo'g'ul qavmlari zikr etilishi bilan xalq qalbiga yanada yaqinlashuv paydo bo'ldi. Turkona, Mo'g'ulona, Xitoyi, Chin – Mochin, Totor, Xo'tan, Xaybar, Habash, Turk, Turkiston, Badaxshon, Yaman, Yag'mo, Adan, Mo'g'ul, Chig'atoy, O'zbek ta'rifli K.larning Kashmiri yoki Bobil bilan aloqasi badiiy matnlarda ko'rinadi. Usruk, maxmur, xumor, nargis gul, bo'tako'z singari tashbehlar K.ning turli holatini oydinlashtiradi: nargisi shahlo – chiroyli ko'z, qora ko'z; nargisi nimxob – yarim uyqudagi ko'z, mujgon ko'z; nargisi jodu – sehrli ko'z kabi. K.ning noyob tashbehlaridan biri esa mastonadir. Xuddi shunday K.ning aldamchiligi, makkoraligi, uning yolg'on sehri ham adabiyotda ayyor, jodu, fatton, qiron, qaroqchi, sohir, sipohiy, jallod, xunrez, makkor(a) sifatlashi bilan keladi:

Ko'z uchidin va'dayi vasl aylab imo oldi jon,
Go'yiyo bozi berib jon oldi ul ayyor ko'z.

Misollar K.ning mastona, sarxush, o't, o'tliq, qattol, kofir, ayyora, ayyor, oqarmoq, gul, chaman, g'oratgar, qiron, nashtar, fitna, fatton kabi tashbehlar silsilasi borligini ko'rsatadi. Mazkur o'xshatishlar lirik qahramonning turli hollarini belgilaydi. Shuningdek, K. bemor, bedor, balo, benavo, jafo, guldek, nilufardek kabi so'zlar b-n sifatlanadi. Bunda ham K. tasviri yanada oydinlashadi:

Ko'z olmasa Navoiy ermas ajab yo'lingdin,
Tikmish yo'lungg'a chunkim ul zori benavo ko'z.

N. turkiy tilni she'riyat tiliga aylantirdi. Ko'plab turkiy so'zlarni irfoniy istiloh darajasiga ko'tardi. Bir-birini taqazo etuvchi, to'ldiruvchi K. va ko'ngil shular jumlasidandir. K. tasvirisiz, K. ta'rifisiz ko'ngil asrorini anglash mushkuldir.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011. Ҳаққулов И. "Борми шоир ёзмаган кўз мадҳига". - "Фан ва турмуш". 2003. №1-2-3.*

Z.R., Sh.N.

KO'Z DUOSI – insonning himoyalanishiga qaratilgan duolardan biri. Bu haqda N.ning "G'.S." devonidagi "Orazi yonig'a gul sanchar jamol izhorig'a, Anglatur husnin ani yondoshturub ruxsorig'a" matla' bilan boshlanuvchi 7 baytli g'azalida aynan K.D.ni tilga olgan. Chunonchi:

Ko'z duosi chun bitirsiz sadqasi aylab meni,
Tori jonim rishtasidin tortingiz tumorig'a.

Diniy manbalar va duoga oid kitoblarda yozilishicha, insonga bad ko'z, bad nazar tegishi rost. Imom Buxoriy rivoyatiga ko'ra, Muhammad (s.a.v.) "Nazar haqdir" deya marhamat qilgan ekan. Bu holatda insonga ko'z tegishi sabab moddiy va ma'naviy jihatdan zarar ko'rishi, ziyon tegishi mumkin. Shuning uchun ham, kishi biron narsani ko'rib, ko'zi quvnasa, "Mashaalloh, la

havla va la quvvata illa billah", deyishi ham mustahab, ham odob ekanligi aytilgan. Shunday ekan, ko‘z tegishidan panohlanish har bir kishi uchun joiz hisoblanadi. Bunday holatda "Fotiha" surasi va "Baqara" surasida kelgan "Oyatul kursiy"ni va undan keyin esa "Qalam" surasining "Bismillahir rohmanir rohim. Va in yakadullazina kafaru layuzliqunaka bi absorihim lamma samiuzzikro va yaquluna innahu lamajnun. Ya ma huva illa zikrul-lil-a'lamiyn" degan surasining 51-52-oyatlarini o‘qish tavsiya qilingan. Yuqoridagilardan anglashiladiki, insonni muhofaza qiluvchi K.D.si, demak, Qur'oni Karimning sura va oyatlari asosiga qurilgani ma'lum bo‘ladi.

N. ham g‘azal baytida shu sura va oyatlarga ishora qilganini anglash mumkin.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; https://qadriyat.uz/islom*

B.R.

"KO‘Z OCHIB YUMGUNCHA" IBORASI. N. nafaqat so‘z, balki ibora ishlatganda ham ulardan ustalik b-n foydalanadi. Qaytariqdan qochish, mumtoz o‘zbek tili imkoniyatini ko‘rsatish maqsadida ularni turli shakl-u shamoyilda ishlatadi. Tez, bir zumda ma'nosidagi bugungi ko‘z ochib yumguncha iborasi N. davrida, asosan, ko‘z yumub ochquncha shaklida uchraydi. Iboraning ushbu shakli shoir asarlarida 28 marta ishlatilgan:

Ko‘z yumulmish hajrdin, ul yuzga
ochmoq istaram
Lek hijron ko‘z yumub ochquncha
ham bermas omon.

Ushbu ibora qofiya, vazn talabi b-n shoir g‘azallarida uch xil shaklda ishlatilgan. Bir marta vazn talabi b-n yumub ochquncha ko‘z shaklida:

Vah, ne qotillardurur saf-saf aning mujgonikim,
Har yumub ochquncha ko‘z zohir qilurlar bir masof.

bir marta ichki qofiya talabi b-n ko‘z ochib yumguncha shaklida:

Visoli ko‘z yumub ochquncha oxir,
Firoqi ko‘z ochib yumguncha barbod.

bir marta komponentlarini almashtirib, ochquncha yumub ko‘z shaklida ishlatadi:

Ochquncha yumub ko‘z ul sipah tez,
Bir-biriga tegib qilurg‘a xunrez.

bir marta ibora shoir tomonidan ikkiga bo‘lib ishlatilgan:

Yonib gulshan agarchi g‘uncha borib,
Ko‘z ochquncha kelib,yumguncha borib.

N. quyidagi baytda ibora tarkibidagi ko‘z o‘rnida nazar so‘zini qo‘llaydi:

Chun ko‘ch elidin nazarni yozdim,
Ochquncha yumub nazarni ozdim.

Shoir o‘z asarlarida ushbu iboraning arabiy turfat ul ayn shaklini ham ishlatadi:

Ey Navoiy, gar desangkim fitna ko‘rmay, solmag‘il,
Bir nazar har turfat ul-ayn ul ko‘zi fatton sari.

Shoirning forsiy g‘azallarida ushbu ibora chashm zadan shaklida ham ishlatilgan:

In davr, ba yak chashm zadan gashta digargun,
Ey umr, ba raftan zi bari mo chi shitob ast?

Tarj.: Bu davr ko‘z yumub ochguncha boshqa shaklda aylanadi, Ey umr (jonon), mening yonimdan ketishga muncha shoshilasan?

Ko‘rinib turibdiki, shoirning uch tilni puxta bilishi, ayniqsa, o‘z ona tilini mukammal bilishi iboralarni turli leksik-stilistik variantda qo‘llashga imkon yaratgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Девони Фоний. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011.*

E.U.

“KO‘K YOG‘LUQ” – ro‘mol. N. yashagan davrda xotin-qizlarning boshiga o‘raydigan ro‘mol turi, nomi, odatda, to‘rtburchak shakldagi mato. N. esa aynan ushbu K.Y. b-n bog‘liq peyzajni “H.A.”ning “Avvalg‘i hayrat” bobida yozgan va mubolag‘a va tarse’ san’ati vositasida go‘zal timsol sifatida ko‘chma ma’noda qo‘llagan va mahorat b-n shunday tasvirlar chizadi:

Gul ul o‘yung‘a chu havas ko‘rguzub,
Jaybidag‘i xurdalarin o‘tquzub.

Jola binafshag‘a urub toshini
Bog‘lab ko‘k yog‘luq ila boshini.

N. aynan “K.Y.”ni go‘zal bir chizgilarda tilga olishi bir tomondan, hasbi hol xarakterida bo‘lsa, ikkinchidan esa kitobxon u-n ham hayratli, ham qiziqarli tarzdagi lirik lavhadir. Hasbi hol deyishimizga sabab, balki shoirning onasi shu singari ro‘molni yoqtirgan yoki shoir quloq og‘rig‘ida bog‘lagan “K.Y.” aynan onasidan qolgan yodgorlikdir, degan xulosaga kelishimiz ham mumkin. Bobur “Boburnoma”da N. haqida yozgan tarixiy ma’lumotida ham K.Y.ni ro‘mol nomi sifatida tilga olgan: ... Alisherbek quloq og‘rig‘ida yog‘liq (ro‘mol, durra – B.R.) bog‘lag‘on uchun xotunlar K.Y.ni qiyiq bog‘lag‘onni “nozi Alisheriy” ot qo‘ydi”.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 2002.*

B.R.

KO‘NGIL – N. she’riyatida qo‘llangan asosiy poetik obrazlardan biri. K. fors va arab tillaridan o‘zlashgan dil, qalb va umumturkiy yurak so‘zlari b-n o‘zaro ma’nodosh bo‘lsa-da, ularga nisbatan poetik ifoda maydoni ancha keng. Lug‘atlarda ko‘ngil – kishining his-tuyg‘u va kechinmalari manbayi; yurak, qalb, dil; xotir, yod, fikr, xayol, ixtiyor; har narsaning markazi, o‘rtasi; insonning ma’naviy borlig‘iga, kuch-quvvatiga, sevgi, nafrat, ishonch – yaxshi-yomon barcha tuyg‘ularning butun borlig‘iga va ifodasiga berilgan nom sifatida izohlangan. Shu bois N. she’riyatida K. holi va haqiqatlari dil, qalb va yurakka nisbatan keng tasvir etilgan, K. obrazi vositasida lirik qahramon ichki dunyosi, ruhiyati, holat va kechinmalari mahorat bilan yoritilgan. N. o‘zining inson, tabiat, jamiyat va ilohiyot haqidagi falsafiy fikrlarini ham shu obraz ishtirokida tasvirlashga alohida ahamiyat bergan. N. g‘azallarida K. holi va uning ma’naviy-ruhiy yuksalishlari tasvirlangan, ko‘ngil va jon, ko‘ngil va ma’rifat, ko‘ngil va ishq, ko‘ngil va borliq haqiqatlaridan bahs yuritilgan yuzlab baytlar mavjud. Bu baytlarda K. “Qofi qanoat”, “aql-u adab, nutq-u balog‘at” , “ganji nihon, ayni karomat”, “koni karam, zoti hidoyat” , “xalqi jahon, jumla imorat” – xullas, barcha-barcha narsani o‘zida jamuljam etgan borliq, jilvagoh, ko‘zgu sifatida talqin etiladi:

Ko‘ngul jomi jahonbindur, to‘la qil sof may birla,
Ki solg‘ay aks nekim bo‘lsa ahvoli jahon anda.

K.ning tasavvufiy maqomlardagi hol va darajalarini hamda bu maqomlarning inson ruhiyatiga ta’sir etishiga alohida e’tibor qaratgan N. o‘z she’riyatida ko‘ngilning hayotiylik va ilohiylik ehtiyojlarini bir-biridan keskin ajratmagan. Balki ularni mushtarak holda tasvirlagan. Shuning uchun N. tasvirlarida ko‘ngil hayotdan ilohga tomon ko‘tariladi va ilohdan hayotga fayz va nurga to‘lib qaytadi. Shoir ko‘ngilning bunday ma’naviy takomilini an’anaviy badiiy tasvir vositalari b-n yanada go‘zallashtirgan. Ulug‘ shoir g‘azal-

larida g‘oyaga mos obraz tanlab, ma’no, tuyg‘u va tasvir uyg‘unligiga erishgan. Tashbeh, tamsil, tashxis, mubolag‘a, tazod kabi she’riy san’atlar orqali ko‘ngilning mazmun-mohiyatini, hissiy-ruhiy nufuzini takrorlanmas rang va ohanglarda ko‘rsata olgan.

Badiiy ijodda K. dastlab tabiatdagi mavjud narsalar – o‘t, qush, g‘uncha, dengiz, tosh, shishaga qiyos etilgan. Islom dini, Qur’on va hadislarning ta’siri tufayli ko‘ngil Arsh, Ka’ba, mehrob kabilarga o‘xshatilgan bo‘lsa, tasavvuf ta’limoti tufayli qadah (jom), may (boda), butxona, vayrona, xazina, ko‘zguga nisbat etilgan. N. she’riyatida bu tashbehlarning deyarli barchasi uchraydi.

a) qatrayi xunob

Ko‘rdum ko‘ngul ahzolini ko‘ksum to‘shugidin,
La’ling g‘amidin qatrayi xunobdek ermish.

b) lola

Ko‘ngulni bag‘ir qonidin lola qildim,
Qo‘yub dog‘ pargola-pargola qildim.

d) xazina

Ishq aro bo‘ldum g‘aniy, ko‘nglum aro paykonidin,
Kim to‘luptur ul javohir birla ushbu maxzanim.

e) qush

Qushga o‘xsharkim, tikandur oshyoni to ko‘ngul,
Tiyrboroni g‘amingdin qoldi paykonlar aro.

f) may ko‘zgusi

Ey xarobot ahli, soqiy orazi aksi uchun
Sof qilmog‘lig‘ bila may ko‘zgusin sayqal qiling.

g) boda

Bo‘l safo ahliga hamdam yor vaslin istasang,
Aksini solg‘ay musoqiy bo‘lmaguncha boda sof?

h) mehrob

Bo‘lmasa ul but qoshi mehrobim ichra jilvasoz,
Qiblaga kofirmen, ar bosh indurub qilsam namoz, –

i) butxona

Orazingning naqshidin butxonadur ko‘nglum uyi,
Ishq bo‘lmish barhaman ichinda ul butxonaning.

j) Ka’ba

Ka’badur ko‘nglum uyi, aylang tavof, ey dard-u ishq,
Anda mehrob o‘rniga yer tutqali ul egma qosh.

N. go‘yo barcha asarlaridagi ko‘ngil xususidagi qarashlarini “H.A.”da bir tizim, tartibga soladi. Ko‘ngilning mazmun-mohiyati mazkur asarda tasavvufiy nuqtayi nazardan atroflicha sharhlanadi. Avvalo, ko‘ngilning dil, yurak, qalb bilan farqli jihatlariga e’tibor qaratiladi:

Bu xud emas jazm sen istar ko‘ngul,
Gar bu ko‘ngul bo‘lsa sen andin to‘ngul.
Buki ko‘ngul dersen erur bu yurak,
Ism ko‘ngul birla anga mushtarak.

Tasavvuf ishq va irfon safaridir. Dostonda esa bu yo‘lchilikning betakror tasvirini ko‘ramiz. Ma’lumki, dostonning XVII bobi “Ko‘ngil ta’rifida...” deb ataladi va shoir azalda Xoliqning maqsadi Odami xokiy emas, balki ko‘ngil ganjinasi ekanligini, shu bois kasbi kamolot aynan ko‘ngilga, ruhga xosligini ta’kidlaydi:

Solik ani arshi muallo dedi,
So‘fiy ani olami kubro dedi.

Ka’baki, olamning o‘lub qiblasi,
Qadri yo‘q andoqki ko‘ngul ka’basi,

Kim bu xaloyiqqa erur sajdagoh,
Ul biri xoliqqa erur jilvagoh.

Solik uchun “arshi muallo”, so‘fiy uchun “olami kubro” sanalgan, xaloyiqqa sajdagoh olam Ka’basidan ko‘ra, Xoliqqa jilvagoh K. ka’basi qadrliroq ekanligi K. safarining badiiy talqini bo‘lgan “L.T.”da shunday bayon qilinadi:

Ko‘nglin oning maxzani irfon qilib,
Ul tilism ichra o‘zin pinhon qilib.

...Aylaganda rozning ganjini arz,
Ne samo aylab qabul oni, ne arz.

G‘ayri insonkim qilib oni qabul...
Ham zalum aylab xitobin, ham jahul.

Anglashilmoqdaki, N. butun koinotni yaratishdan maqsad inson, insondan g‘araz esa maxzani irfon, Allohning omonatini qabul aylagan K. ekanligidan bahs etmoqda.

Tariqat K.ni omonatga xiyonat etmaslik uchun tarbiyat etsa, adabiyot uning holat va kechinmalarini ifoda etadi. Adabiyotda K. sayridan jozibaliroq hayrat yo‘qdir. N. buni K. hayratlarida ko‘rsatib beradi. “Avvalg‘i hayrat”da hali vujudga kirmagan K. Adamdan malak olamiga tushib, uni sayr etadi. Birinchi hayrat – Xudoning borligini anglash, Yaratuvchisi kimligini fikr etish mushohada maqomidir. K. “Ikkinchi hayrat”ida malak olamidan malakut olamiga tushadi hamda to‘qqiz falakni kezadi. To‘qqiz falakning bari Allohning zikrida ekanligini ko‘radi va bu holdan behad hayratga tushib, behud bo‘ladi:

Borchasida zikr-u sujud angladi,
Ma’rifatullohg‘a shuhud angladi.

Yuzlanib o‘z holida g‘ayrat anga,
Birga ming o‘ldi yana hayrat anga,

Kim bori zokir edi, ul gungu lol,
Borchasi majmu-yu ul oshuftahol.

Solik yillarcha riyozati natijasida basirat, ya’ni qalb ko‘zi ila ko‘rish maqomiga erishadi va K. ko‘zi bilan barcha mavjudotning “Qayyumiga zokir va unga shokir” ekanini ko‘radi. Har narsa yana o‘z asliga qaytadi. Ikkinchi hayratdagi tasvirlar nafsi poklanib, ruhga sirdosh bo‘lgan oshiq qullarning sayridir. Uchinchi daraja – nafsi mulhamadagi zokir nafaqat dunyoviy, balki uhroviy istaklardan ham voz kechadi. Basirati ravshanlashgan sayin olamlararo sayr etadi va butun koinotning zikridan ogoh bo‘ladi. “Uchinchi hayrat”da esa K. malakut olamidan badan mulkiga sayr etadi:

Xojaki hayrat mayidin mast edi,
Mastliq uyqusig‘a hamdast edi...

Asr-u achig‘ may bila maxmur o‘lub,
Balki qiziq o‘t bila mahrur o‘lub.

K.ga doir tashbeh, ramz-u majozlarning sonsanog‘i yo‘q. Biroq “H.A.”da o‘ziga xos murojaatga guvoh bo‘lamiz. N. hali manzil makonini topmagan K.ga “Xoja” deya murojaat etadi. Zero, insonning insonligi, uning yaratilishidagi maqsadga e’tibor qaratsak, K.ning mohiyatini ushbu ta’rif to‘la ochib beradi. Ya’ni, insonning sohibi, xo‘jayini K.dir. Mabodo u vujudga qaram bo‘lsa, ana shunda adashish, jaholat boshlanib, inson zalolatga yuz tutadi. O‘zligidan, oliy haqiqatdan uzoqlashadi.

Hayrat mayidan mast, haliyam mastlik uyqusidan uyg‘onmagan Xoja – K. birdan hushiga kelib, o‘ziga vatan topishni o‘ylaydi:

G‘urbat o‘ti har dam o‘lub shu’lazan,
Tushti xayolig‘a havoyi vatan.

Shunda uning oldiga bir shahar keladi. U vujud shahridirki, bu shaharni shoir eng qorong‘u burchaklarigacha ta’rif-tavsif qiladi. Xoja bularni ko‘rib, hayrat dengiziga g‘arq bo‘ladi. Unga ato etilgan yangi maskanida idrok, mushohada ne’mati beriladi hamda tasavvufda ko‘p bora tilga olinadigan, ma’rifatga erishishdagi asosni anglab yetadi:

Mulk o‘zi-yu taxt o‘zi-yu shoh o‘zi,
Borcha o‘zi, borchadin ogoh o‘zi.

Nafsg‘a chun orif o‘lub mo‘-bamo‘,
Foyiz o‘lub “Qad arafa rabbahu”.

Adamdan malak, malakdan malakut, malakutdan vujud olamiga kelgan K.ning sayri qachon tugaydi? Tasavvuf va adabiyot mana shu savolga javob beradi va insonni so‘nggi sayrga tayyorlaydi.

Bu g‘urbat K.ning mulk olamiga kelishi bilan boshlanganligini anglashda shariat yordam beradi. N.ning K. haqidagi xulosalari, albatta, xotima asari “M.Q.”da keladi: “K. badan mulkining podshohidur, anga sihhat, munga ham sihhat, anga tabohi, munga ham tabohidur. Bas ulkim, K. mulkining sohibjohi bo‘lg‘ay shohlar shohi bo‘lg‘ay. Badan saloh va fasodi, ko‘ngul saloh va fasodig‘a tobe’ va mulk obod va har oblig‘i shoh adl va zulmig‘a roje’. Podshoh – mulk badanining jonidur va ko‘ngul – badan mulkining sultoni.

Bayt:

Mulk uchun solim keraktur xusravi kishvarpanoh,
Tan uchun ul uzvkim, bo‘ldi badan mulkida shoh.

Shuningdek: Suvdin asrag‘ulukdur tufroq va balchig‘ uyin. Va o‘tdin asrag‘uluqdur yag‘och va qamish uyin. Va yeldin asrag‘ulukdur bo‘z uyin. Va tufrog‘din asrag‘ulukdur ko‘z uyin. Jami’i mosivallohdin asrag‘ulukdur K. uyin.

Bayt:

Nechukkim, to‘rt uyga to‘rt ziddi nuqsoni shoye’dur,
Beshinchi uy dag‘i ag‘yordin ul nav’ zoye’dur.

Beshinchi uy, albatta, K. U baytullohdir. Bu uyda Alloh azza va jalladan boshqa barcha g‘ayrdir.

K., qalb, dil, yurak, ong, tafakkur, ko‘z nazari, ibrat nazari, taqdir kabi tushunchalar N. talqinida o‘zining to‘liq va mukammal ifodasini topgan. N. K. haqida vasflar bayon qilar ekan, bani basharning, jumlayi olamning ko‘nglini nazarda tutgan. O‘z asarlari bilan dunyo xalqlarining K.iga yo‘l topgan, ularni o‘z ko‘ngliga yaqin olgan yakqalam sohibidir. “X.”dostonlari matnida N. ko‘ngul tori, ko‘ngul qobuli, ko‘ngul kunji, ko‘ngul durji, ko‘ngul balosi, ko‘ngul havosi, ko‘ngul bog‘i, ko‘ngul quti, ko‘ngul o‘ti, ko‘ngul quvvati, ko‘ngul ko‘zgusi, pok ko‘ngul, el ko‘ngli, ulus ko‘ngli, zamon ko‘ngli, ko‘ngul bermoq, ko‘ngul olmoq, buzuq ko‘ngul, g‘ayri ko‘ngul, g‘araz ko‘ngul, qon ko‘ngul, pora ko‘ngul, ovvora ko‘ngul, sinuq ko‘ngul, hazin ko‘ngul, o‘rtangan ko‘ngul b-n bog‘liq yigirmadan ortiq o‘ziga xos bitishuvli, moslashuvli so‘z birikmalarini badiiy maqsadda o‘rinli qo‘llay olgan. Bu grammatik forma va birliklar N. davri til tarixini o‘rganish uchun ham muhim manba sanaladi. N. “H.A.” dostonining birgina “Ko‘ngul ta’rifidakim” bobida K. so‘zini yigirma ikki marta tilga olar ekan, K. haqidagi falsafiy, hayotiy, diniy, aqliy, naqliy fikrlarni masnaviy shaklida bayon qiladi. Bobdagi fikrlardan shuni anglashimiz mumkinki, ushbu dostonning barcha boblari qaysidir ma’noda inson K.iga ham qaratilgan bo‘lib, K.imizga fayz, ilhom, nur, g‘ayrat, kuch-quvvat, shodlik hadya qilgandek bo‘ladi. Quvonarli jihati shundaki, ulug‘ shoir har bir bobda K.imizni izlaydi, “o‘z va o‘zganing ko‘nglini asra, avayla”, deya K.ga og‘ir botmaydigan badiiy, lirik lavhalarni tasvirlaydi. K.imizni Allohdan to‘suvchi xayollardan, holatlardan, xatarlardan saqlashni o‘rgatgandek bo‘ladi. Mazkur bobda shoir K. obraziga nisbatan “ko‘ngil sirlar bo‘stoni”, “ko‘ngil – jannat isi”, “ko‘ngil – ilohiy jilva chirog‘ining nuri”, “ko‘ngil – eng katta olam”, “ko‘ngil – eng baland osmon”, “ko‘ngil – katta jahon” kabi betakror tashbehlar qo‘llaydi. Bu tashbehlar orasida “ko‘ngil – eng baland osmon” tashbehi xalqimiz orasida qadimdan mavjud va maqbul bo‘lgan “Ko‘ngil qanoti – osmondan katta” maqoliga juda yaqin va hamohangdir.

N. “X.” dostonlarida K.ni jon, jasad, ruh, aql, xirad, til, uyat, poklik, nasihat, kenglik kabi tushunchalar b-n bog‘lagan holatda mantiqiy qarashlarini ham bildirgan. Doston qahramon-

lari misolida tushuntirib bera olgan. Ulardan el ko‘ngli, ulus ko‘ngli, zamon ko‘ngli kabi so‘z birikmalari shoirning insonparvarlik, xalqparvarlik g‘oyalarining badiiy-estetik, falsafiy talqinidir:

Kim anga alfoz o‘lub otashfishon,
Bersa ulus ko‘nglig‘a mungdin nishon.

Mutafakkir shoir “X.”da el ko‘ngli, ulus ko‘ngli haqida fikr yuritar ekan, antiteza usuli yordamida “el ozori”, “el anduhi” ham borligini eslatishni unutmaydi. N. shaxsi umumlashgan shaxs “birov” obrazi misolida mahorat bilan tasvirlab beradi. Tasvirda so‘zlovchi K.i ham, tinglovchi K.i ham, o‘zga shaxs K.i ham mujassamlashgan. Bunday fikrlar, eslatishlar, tasvirlarni hamma shoirlar ijodida ham uchratish mumkin, deya olmaymiz. Fikrlarimiz isboti u-n navoiyona uslubga xos misollarga murojaat qilsak:

Biravkim zor yig‘lab, yig‘lab ul zor,
Topib ko‘ngli el ozoridin ozor.

Yoki:

Bo‘lib el anduhidin ko‘ngli g‘amnok,
Yoqa chokin ko‘rub,ko‘ksin qilib chok

N. “M.N.” asarida el K.i birikmasini xalq, el bahosi, nazari va bu baho, nazar har bir inson hayotida, ayniqsa, qalam ahli hayotida, ijodida muhim mezon, munosabat kabi tushunchalarda hamda adabiy tanqidchilikning bir ma’rifiy vositasi sifatida ham talqin qilgan. Shu bois ijodkorlarning yozgan asarlari el K.iga maqbul, marg‘ub bo‘lishi yoki bo‘lmasligi kabi N.ning kuzatishlari o‘z davri ijodkorlari u-n qanchalik muhim va qadrli bo‘lsa, hozirgi davr qalamkashlari u-n ham nihoyatda muhim, adabiy, ijtimoiy, tarbiyaviy ahamiyatga ega, deb baholashimiz mumkin. M-n, mazkur asarning uchinchi majlisida zikr qilingan Mavlono Binoiyning musiqa ilmiga bag‘ishlab yozgan risolasi el K.iga maqbul bo‘lmagani sabab uning ko‘rgan zahmatlari, hayoti va ijodidagi tushkunliklari, yo‘qotishlari “bu sifati salbi” haqida N. ibratomuz fikrlarini achinish hissi b-n shunday bayon qiladi: “Mavlono Binoiy avsot unnosdindur, muvalladi Hiriy shahridur. Bag‘oyat qobiliyati bor. Avval tahsilg‘a mashg‘ul bo‘ldi, anda ko‘p rushdi bor erdi, bot tark qildi. Xatg‘a ishq paydo qildi. Oz fursatda obodon bitidi. Andin so‘ng ilmi musiqiyg‘a mayl ko‘rguzdi. Advor ilmi bilan bot o‘rganib, xili ishlar tasnif qilib advorda dag‘i risola bitidi. Ammo mo‘jib va mutasavvirlig‘idin el ko‘nglig‘a maqbul bo‘lmadi. Bu sifati salbi uchun faqr tariyqin ixtiyor qildi va riyozatlar ham tortti, chun piri va murshidi yo‘q erdi, o‘z boshicha qilg‘on uchun hech foyda bermadi. El ta’nu tashniidin Hiriyda turolmay Iroqqa bordi...ko‘p g‘urbat va shikastaliklar tortti”. Buning aksi o‘laroq esa el K.iga marg‘ub bo‘lgan ijodkorlardan biri sifatida shoir “M.N.”da Mavlono Xalaf to‘g‘risida quyidagilarni yozadi: “Mavlono Xalaf tabrizlikdir. Xulqda xub, natoyiji tab’da el ko‘nglig‘a marg‘ub yigitdir”. Umuman, N. ijodini kuzatsak, shoirning o‘zi ham “bu sifati salbi”dan, ya’ni el K.idan, nazaridan qolishdan ogoh bo‘lgan, hushyor yurgan. Bu ogohlik, hushyorlikni esa shoirning Allohdan ijod qilgan asarlarini el ko‘ngliga mahbub va marg‘ub qilishini so‘rab yozgan lirik shakldagi iltijolaridan bilishimiz mumkin.

Aslida, jon va K. tilshunoslik, to‘g‘rirog‘i, sintaktik jihatdan teng munosabatli birikmalardir. Ammo N. bunday teng munosabatli sintaktik birikmalarni “X.”da turli badiiy-estetik fonda tez-tez qo‘llaydi. Hajr o‘tida jon-u K.ni birga, bir holatda kuyib kul bo‘lish darajasida bo‘lishi haqida ham badiiy, ham mazmunan, ham ruhiy jihatdan mukammal hayratomuz tasvirni faqat N.da, ya’ni Shirinning Farhodga yozgan nomasida uchratamiz. Tanishing:

Kuyib hajr o‘tidin jon-u ko‘ngul ham,
Ne kuymakkim, bo‘lub yuz qatla kul ham.

Odatda, har bir inson o‘z K.i yoki o‘zgalar K.i u-n ham qaysidir ma’noda yupanch, taskin,

kuch-quvvat izlaydi. Ulug‘ shoir so‘z, pand-u nasihat K.ga o‘zgacha mador bo‘lishini, ya’ni K. maqsadga yetishini, jon esa rohat topishini Xoqon tilidan quyidagicha tushuntirib beradi, bizga go‘yo o‘rgatib ham qo‘ygandek bo‘ladi, chunki N. nasihat so‘ziga alohida urg‘u berib yozgan:

Ko‘ngul dardig‘a darmondur nasihat,
Qiloli ulcha imkondur nasihat.
Agar xud topti taskin davlat o‘ldi,
Ko‘ngulga kom-u jong‘a rohat o‘ldi.

Dostonda Mehinbonu ham ona, ham hukmdor sifatida Shirinning K.i u-n aytgan nasihatlari qaysidir ma’noda bugungi zamondoshlar K.iga ham quvvat bo‘lishi mumkin. Mehinbonuning nasihati xoqon aytgan nasihatlardan farqli bo‘lib, uning nasihatida “ko‘ngil uchun ko‘z ber” hikmati yashiringandek. Sababi ko‘zni asrash, bu ayni damda xayollarga to‘ymas K.ni ham asrash demakdir. Shoirning so‘z qo‘llashdagi mahorati shundaki, ikkinchi misrada K. jumlasi ko‘zga nisbatan birinchi o‘rinda ishlatilgan bo‘lsa-da, nasihatning boshi, aslida, ko‘zga qaratilgan, ya’ni shoir “Dami asra ko‘z birla ko‘nglungni” tarzida yozsa ham ma’noga shikast yetmagan. Ammo bayt shakliga, to‘g‘rirog‘i, qofiyaga ta’sir qilishi mumkin. N. K.i istagandek, “o‘zungni ko‘zungni” shaklida mukammal qofiya yaratish u-n K., ko‘z singari so‘zlarning bayt yoki misradagi joylashishiga ham e’tiborli, diqqatli bo‘lgan. N.ning so‘z qo‘llashdagi bunday mahoratiga “X.” matnidan ko‘plab misollar keltirish mumkin. Endi Mehinbonu nasihatiga quloq tutaylik:

Ki, ey farzand bardosh tut o‘zungni,
Dami asra ko‘ngul birla ko‘zungni.

N. ulug‘ mutafakkir va K. odami sifatida o‘quvchiga gohida o‘z K.ingni salomat, ofiyat, keng saqlash u-n sharhlab turgin, shundagina xasta va vayrona ko‘ngling xatarlardan, dardlardan, afsuslardan, g‘uborlardan, zo‘riqishlardan xoli bo‘ladi, degan hakimona fikrlarini shunday bayon qiladi:

Chun ko‘ngul sharhi holi aylarsen,
Xasta ko‘nglungni xoli aylarsen.

K.ni sharhlab turish, bu bir tomondan K.ni ta’mirlash, demakdir. Fikrlarimizni N.ning “L.T.” dostoni misolida davom ettirsak, shoir vayrona K.ni aql yordamida ta’mirlab turishga oddiy, xalqona usulda quyidagicha maslahat beradi:

Qani aql yetguncha ishq tadbirini,
Qilg‘uchi vayron ko‘ngul ta’mirini.

Vayrona K.ni ta’mirlab turish... Bunday betakror talqinlar, maslahatlar b-n hazrat N. bizni hayratga solishda davom etaveradi! Ushbu baytda K. bosh so‘z va ergash so‘z vazifalarida qo‘llanilgan. Bosh so‘z vazifasida vayron K. shaklida bitishuvli so‘z birikmasi bo‘lsa, ergash so‘z vazifasida esa K. ta’miri ko‘rinishida belgisiz, moslashuvli so‘z birikmasidir.

Inson hayoti davomida shunday odamlarga, zamondoshlarga duch keladiki, u insonlarning tili b-n K.i bir bo‘lmaydi, insonning kamoloti, fazilatiga zarar keltiruvchi bunday nuqsonlar bois ular o‘zi va o‘zgalarni mushkul vaziyatlarga tushiradi, jabr ko‘radi. N. bunday salbiy holatlarni quyidagicha yozadi:

Hech shak yo‘qtur manga, ey bulhavas,
Kim bu so‘zda til-u ko‘nglung bir emas.

Xalqimizda K. b-n bog‘liq “ko‘ngildagidek bo‘ldi” degan ibora bor. Bir tomondan, bu iborani har bir inson tez-tez takrorlab turishni xohlaydi, ikkinchi tomondan esa bu “takror” jarayoni u-n insonning ko‘proq bir hojati yoki bir ishi joyida bo‘lishi kerak. Shunda inson “ko‘ngildagidek bo‘ldi” deb shukrona aytadi, o‘z yaqinlariga, do‘stlariga zavq b-n so‘zlab beradi. Shu daqiqalarda insonning o‘zidan minnatdorligi ortadi, K.i esa Allohga to‘ladi. “X.”dan esa inson b-n bog‘liq bunday ruhiy holatlarga ko‘plab misollar keltirishimiz mumkin, N. “L.M.” dostonining 37-bobida shunday ruhiy mashqlarni kitobxonga tavsiya qilgandek bo‘ladi:

Har fisq xayoli qilsa xotir,
Tengrini boshingda angla hozir.

To barcha ishing degandek o‘lg‘ay,
Ko‘ngling nechuk istagandek o‘lg‘ay.

Ya’ni, har qanday yomonliklar xotirangga kelsa, Tangrini esla, esingga tushirgin. Ana shunda barcha ishlaring risoladagidek, eng muhimi, Allohning roziligi nimada bo‘lsa, ko‘ngling shuni topgandek bo‘ladi, ko‘ngildagidek bo‘ladi, - deydi. K.ga tushgan qo‘rquvdan, qattiq hayajondan o‘zni asrash u-n tavba qilib, “Lohavl” kabi duolarni o‘qish kerakligini alloma N. “L.T.”da tushuntirishga harakat qilgan. Shoir ijodida bunday tushuntirishlar b-n tanishganimizda, u haqidagi “avliyo desak, avliyolarning avliyosi” singari bahoyu sifatlar yodimizga keladi. Misralarni o‘qiymiz:

Asradi o‘zni ko‘p istig‘for etib,
Og‘zida “Lohavl”ni takror etib.

N.ning bu boradagi boshqa bir o‘gitiga, to‘g‘rirog‘i, tilagiga quloq tutaylik, K.imiz o‘sadi:

Ki, Tengri har ne komingdur yetursun,
Nekim istarsen olling‘a ketursun.

Ha, o‘z K.ini, o‘zganing K.ini topish, K.dagidek ishlash va yashash, umuman, ko‘ngildagidek hayot kechirish u-n har bir insondan katta kuch, mardlik va odamiylik ma’naviy jasorat sohibi bo‘lish b-n birga aql (xirad) va ko‘ngil hamrozligi talab qilinadi. Bu to‘g‘risida N. “Hamd”laridan birida shunday izohlarni bayon qiladi:

Sendin insong‘a tor-u pud-u jasad,
Jasad ichra ko‘ngul, ko‘ngulda xirad.

K.da uyat (hayo)ning borligi solimlik, insof va adolatli bo‘lishlik, degan kuzatuvlarini, iqrorlarini N. shoh Iskandar misolida sharhlasa-da, har bir oddiy inson u-n ham zarurligini shoir yashirin planda yoritganini anglash mumkin:

Solib ul sifat sidq oyin sifot,
Degandin aning ko‘ngli ichra uyot.

Pushaymon bo‘lub degan aqvolig‘a,
Buzuldi base ko‘ngli el holig‘a.

N. o‘zi yaratgan obrazlari tasvirida pok K. b-n bog‘liq darajalarni, fazilatlarni alohida izohlaydi. Ayniqsa, Farhod obrazidagi shunday daraja, fazilat, tasvir buning yorqin misolidir:

Demonkim, ko‘ngli pok-u ham ko‘zi pok,
Tili pok-u so‘zi pok-u o‘zi pok.

Muningtek tiynati pokiga loyiq,
Duosin aytibon poki xaloyiq.

Tasvirga e’tibor qaratsak, Farhodning ko‘nglida boshlangan poklik uning ko‘zida, tilida, so‘zida, o‘zida ham mujassam bo‘lishi yuksak mahorat va mantiqiy izchillik b-n tadrijiy shaklda tasvirlangan. “X.”da N. “mulk ishi”ga “ko‘ngil ishi” poetik iborasini qarama-qarshi qo‘yar ekan, “ko‘ngil ishi”ga berilgan shoh “mulk ishi”dagi sobitlik, ogohlikdan chekinadi, bu esa “mulk ishi”ni qisman bo‘lsa-da, barbod qiladi kabi fikrlari isboti u-n “Aql-u dini bor, g‘amda toqati, baloda tamkin bor” sifatini shoh Bahrom obrazi misolida ifodalaydi. Diloromdan ayrilgan shoh Bahrom “ko‘ngil ishi” bois, mulk ishi – mamlakat, davlat boshqaruvini tashlab qo‘yadi, bu holatni N. “Yig‘lag‘u yo‘qki, kulgu yanglish ish” deb baholaydi va yozadi:

Taxt ila mulk yodidin ketti,
Vaxshdek dasht aro maqom etti.

“S.I.”da esa N. kordon shoh Doroning Iskandarga mensimay aytgan xulosalarida bu g‘oyani qisqa va ta’sirli tarzda ko‘rsatishga harakat qiladi. Aslida, bu ham N. nasihati va nazariyasi, ijtimoiy fikrlarining poetik talqinidir:

Budurkim ko‘ringay sanga ko‘zga ish,
Va lekin erur mulk ishi o‘zga ish.

Shoirning “X.” dostonlari, tazkiralari, lirik merosida K.ning ta’rif hamda tasvirlari rang-barang va betakrordir. Ammo N. ta’kidlaganidek, har doim K.ni rahnamo qilib maqsadga kirishish muhimdir:

Ko‘nguldin tavahhumni aylab adam ,
Ilik ishga ur, yo‘lg‘a qo‘yg‘il qadam.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011. Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Ўзбек халқ мақоллари. 2 томлик, 1-том. – Т., 1987; Очилов Э. Бир ҳовуч дур.(Мақолалар тўплами) – Т., 2011; Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

B.R., N.B., Z.R.

“KO‘NGIL HAYRATLARI” – ushbu monografiya prof. M.Muhiddinovning adabiyotshunoslik va n.shunoslikdagi dolzarb mavzularga doir tadqiqotlarini jamlagan bo‘lib, unda Sharq mumtoz she’riyatida juda katta o‘rin tutgan xamsanavislik an’analari qalamga olinar ekan, to‘rt buyuk daho – Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy va N. “X.”larining ilk dostonlari qiyosiy tahlil qilinadi. Mazkur asarlarda komil inson tasviri talqin mavzusining markaziga qo‘yilgan holda to‘rt ijodkorning mushtarak va novatorliklari teran yoritib beriladi. Olib borilgan tahlillar daholarning komil inson masalasiga yondashuvlari, ular ilgari surgan tamoyillar va g‘oyalar bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmaganini dalillaydi.

Monografiya mavzu yo‘nalishiga ko‘ra bob-larga ajratilgan. Jumladan, “Xamsa”larning birinchi dostonlarida komil inson talqiniga bag‘ishlangan ilk bobida N. va salaflar ijodida anbiyolar va avliyolar, valiylar va so‘fiylar siymosi, Komil inson, Hazrati Payg‘ambar siymosi badiiy tasvirining irfoniy-tasavvufiy tahlili o‘rin olgan. Dostonlarda ko‘ngil timsoli, inson axloqi va kamoloti talqinida an’anaviylik va ijodiy o‘ziga xoslik masalalarining yoritilishi kitobxon ko‘z o‘ngida beshliklarning ilk dostonlarida asosiy yetakchi g‘oya, adabiyotning ideali – Komil inson timsoli sifatida gavdalanishi ko‘zda tutilgan.

“O‘zbek mumtoz adabiyotida “Bahrom va Dilorom” va “Bahrom va Gulandom” turkumidagi dostonlarning qiyosiy tahlili” bobida Sharqning buyuk shoirlari Firdavsiy, Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, N., Sayqaliy, G‘aribiy kabi ijodkorlarning Bahrom Go‘r syujeti asos bo‘lgan asarlari batafsil ilmiy tahlil etilib, timsolning Sharq xalqlari adabiyotidagi versiya va o‘zbekcha variantlarida rivojlanib borishi jarayonlariga yangi manbalar asosida nazar tashlanadi. Syujet takomilida vorisiylik, an’ana va novatorlik, an’ana va javobiya masalalari b-n uzviy aloqadorligi Firdavsiydan N.gacha, G‘aribiy, Sayqaliy, Ogahiy ijodlari misolida Bahrom Go‘r syujeti genezisi va tipologiyasining o‘zbek adabiyotidagi tadrijiy takomili tadqiq etilgan. “Sab’ai sayyor” buyuk N. qalamidan chiqqandan keyin u Bahrom haqidagi yangi yetuk asar sifatida xalq orasiga keng tarqaldi. Shuning barobarida, N.ning insonparvar g‘oyalari, ijtimoiy-siyosiy qarashlarini davom ettirgan shoir G‘aribiyning Rossiya FA Sharqshunoslik instituti Sankt-Peterburg bo‘limining qo‘lyozmalar fondida №S165 raqami ostida saqlanayotgan “G‘ariblar hikoyati” nomli Qoshg‘arda tuzilgan dostonlar to‘plami va undagi “Shoh Bahrom va Dilorom” dostoni o‘zbek mumtoz adabiyotshunosligining yangi bir sahifasi sifatida taqdim etilgan.

M.Muhiddinovning ayrim ilmiy maqolalaridan tarkib topgan “Navobaxsh hikmatlar” bobida esa Hazrat N. saboqlari dostonlardagi hamdlar hikmati tadqiqida barhayot adabiy an’analar me-

zonlarini zamonaviy kitobxon ko‘z o‘ngida gavdalantiradi. Olim kuzatishlarida N. ijodi shu’lavor chashma kabi ishqda pokbozlik tarannumi, vafoda sadoqat, iymonda butunlik muhimligi tasdig‘i b-n hushyorlikka chorlaydi.

Mir Alisher ijodi va adabiy ta’sir masalasi, tarjima an’anasi, ilmiy-adabiy maktablar shakllanish omillari kabi zamon va makon tanlamas navoiyshunoslikning dolzarb muammolari tadqiqot obyektiga aylantirilib, bugungi kun adabiyotshunosligi oldida turgan vazifalar sifatida belgilab berilgan. Muhammadrizo Ogahiyning Nizomiyning “Haft paykar” dostonida tarjimonlik mahorati, shuningdek, XX asr o‘zbek adabiyotining zabardast shoiri G‘afur G‘ulom she’riyatida N. ijodini puxta egallash natijasida yuzaga kelgan san’atsozlik, shoirning klassik poetik san’atlaridan foydalanish mahorati xususida fikr yuritilib, uning Buyuk shoir g‘azaliga bog‘lagan muxammaslari tahlilga tortilgan.

N.shunos olimning ushbu kitobda taqdim etgan tadqiqot natijalari va kuzatishlari sarzamini hisoblangan Samarqand n.shunoslik ilmiy maktabi tarixi, adabiyotshunoslik va tilshunoslikda erishilgan natijalar va oldinda turgan dolzarb muammo, vazifalar mufassal taftish etiladi. Olim mulohazalarida quyidagi maqsad va vazifalar o‘rtaga tashlanadi: N. asarlarini matnshunoslik va manbashunoslik mezonlari bo‘yicha o‘rganish, yangi manbalarni izlab topish va amaliyotga joriy etish, N. asarlarining turli nashrlari (ilmiy-tanqidiy, yig‘ma-qiyosiy, akademik, faksimel, ommabop va hokazolar)ni tayyorlash va chop etishni izchil davom ettirish; N. davri, hayoti va faoliyatiga doir adabiy, tarixiy manbalarni tanqidiy o‘rganib, tahlil qilish va ilmiy asoslangan xulosalar asosida uning to‘liq tarjimayi holini tiklash; N. va Samarqand ilmiy-adabiy muhiti masalasini yanada chuqurroq o‘rganish, XV–XIX asrlarda Samarqandda yaratilgan ilmiy va adabiy manbalarda N.ning shaxsi va ijodiga berilgan bahoni qiyosiy-tipologik tahlil qilish; N. asarlari tilini lingvistik va lingvopoetik mezonlar asosida tadqiq etish va shu orqali o‘zbek adabiy tilining tarixiy tadriji haqida aniq xulosalar berish; N. asarlari misolida o‘zbek mumtoz adabiyotining nazariy masalalarini o‘rganishni davom ettirish; musulmon Sharqi mintaqasida baqamti rivojlanib kelgan arab va fors-tojik adabiyotining an’analarini ijodiy o‘zlashtirib, yangi mazmun va mohiyat b-n boyitgan N. ijodi tufayli uchinchi kuchli adabiy jarayon – turkiy xalqlar adabiyotining paydo bo‘lishi va rivojlanishi tamoyillarini ilmiy o‘rganish hamda bu evrilishlarda ulug‘ shoir va mutafakkir ijodining o‘rni, mavqeyi va ahamiyatini ko‘rsatish; tarjimashunoslik mezon va meyorlari asosida N. asarlarining jahondagi turli tillarga qilingan tarjimalarini o‘rganish, shoir asarlarining yangi tarjimalarini amalga oshirish; N. ijodi bo‘yicha xorijiy olimlarning qilgan tadqiqotlarini o‘zbek tiliga tarjima qilish, ularni xolis o‘rganish; o‘zbek tasavvuf she’riyatida N. asarlarining o‘rni, mavqeyi va ahamiyatini kompleks ravishda o‘rganish, she’riyati va nasriy asarlarida ilohiyot va diniy ma’rifat masalalarini tadqiq etish; N. va adabiy aloqalar, an’ana va tajdid (novatorlik) masalalarini yirik yo‘nalishda (N.gacha bo‘lgan davr, N. davri va N.dan keyingi davrga bo‘lib) tahlil etish; N. dostonlarining sharhli nasriy bayonlarini yaratish, lirik asarlariga sharh yozish, nasriy asarlarini hozirgi o‘zbek adabiy tili meyorlariga muvofiqlashtirib qayta bayon etish kabi usul va vositalar orqali ulug‘ shoir va mutafakkirning ijod olamiga yaqinlashish va yosh avlodning ma’naviy olamini boyitishning samarali yo‘llarini izlab topish, shu tariqa uning g‘oyalarini targ‘ib va tashviq etish; zullisonayn shoirning “D.F.” hamda boshqa forsiy merosini tarjima va tadqiq qilish, uning forstojik mumtoz she’riyati rivojiga ko‘rsatgan ta’sirini o‘rganish, an’ana va tajdid, tatabbu’, tavr va muxtara’ g‘azallar o‘rtasidagi mushtaraklik va tafovutlarni aniqlash.

Umuman muallif o‘z xulosalarida, N.ni tahlil va talqinda anglash, ma’rifatangez misralar mohiyatini o‘rganish, targ‘ib va tatbiq etishda ilmiy xolislik mezonlari asosida yangi-yangi tadqiqotlarni amalga oshirishga undaydi.

Ad: *Муҳиддинов М. Кўнгил ҳайратлари. – T., 2020.*

O.D.

KO‘NGIL KA’BASI – tasavvuf istilohida mo‘minning qalbi. Bu tasavvufdagi ko‘ngilni ulug‘lash an’analariga borib taqaladi. Ko‘ngilning hamma narsa, hatto Ka’badan ham ustun qo‘yilishining sababi shundaki, tasavvufda Allohdan keyin ko‘ngil turadi. To‘g‘ri, Ka’ba – Allohning uyi, lekin u zohiriy, ramziy uy, uning haqiqiy uyi – insonning ko‘ngli. Dunyo va nafs g‘uborlaridan poklangan, ko‘zguday musaffo holga kelgan ko‘ngilda Alloh jamoli jilvalanadi. Shuning uchun ham Umar Hayyom loydan bino qilingan yuzta Ka’ba bitta ko‘ngilning o‘rnini bosolmaydi, degan. N. ham “H.A.” dostonida olamning qiblasi bo‘lishiga qaramay, Ka’baning K.K.chalik qadri yo‘q, deb lutf etadi:

Ka’baki, olamning o‘lub qiblasi,
Qadri yo‘q andoqki, ko‘ngul ka’basi.

G‘azallaridan birida esa ko‘ngil uyini Ka’baga, unda makon tutgan yorning qayrilma qoshini mehrobga tashbeh etib, dard-u shavqni uni tavof etishga da’vat qiladi:

Ka’badur ko‘nglum uyi – aylang tavof,
ey dard-u ishq,
Anda mehrob o‘rnig‘a yer tutqali ul egma qosh.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва таъбироти ирфоний. – Техрон, 1379 (ҳ.-ш.).*

E.O.

KO‘PRULU Muhammad Fuod (1890–1966, Istanbul) turkolog, adabiyotshunos, tarixchi va publitsist, davlat arbobi. Istanbul universitetining huquqshunoslik fakultetini tamomlagan (1909). Adabiyotshunoslik, tarix va falsafa bilan shug‘ullangan. “Turk adabiyotida ilk mutasavviflar” (1919–1966), “Devon adabiyoti antologiyasi” (1932–34), “Adabiyot tadqiqotlari” (1966-y.) va umumturkiy klassik adabiyotiga doir mavzularda kitoblar chop ettirgan. Turkiyada n.shunoslik deganda, ulug‘ shoir asarlarining usmonli adiblariga ta’sirini o‘rganish mavzusi turadi. Xususan, XV–XVI asrdayoq Onado‘li shoirlari N.ni ustoz deb e’tirof etganlar va unga ergashib turli janrlarda she’rlar bitganlar. Ushbu masala K.M.F. tomonidan keng o‘rganilgan. K.M.F. 1919-y.da yozgan “Turk adabiyotida ilk mutasavviflar” kitobidayoq Usmonli adabiyotining shakllanishini idrok etish, xususan, Ahmad Posho davrini o‘rganishdan oldin N.ni bilish zarur, deb hisoblaydi va N.ni klassik Chig‘atoy adabiyotining asoschisi ekanligini ta’kidlaydi. Shuningdek, aruzning takka va xonaqohlarga kirib borishini N. bilan bog‘laydi. K.M.F. 1926-y. Bokuda o‘tkazilgan Qurultoyda “Turkiy xalqlarda adabiy tilning inkishofi” mavzusidagi ma’ruzasida o‘z mulohazalarini N.ga tayangan holda asoslaydi. 1934-y. yozgan “Alisher Navoiy va ta’sirlari, Turk tili va adabiyoti haqida tadqiqotlar” kitobi turk n.shunosligida salmoqli o‘rin tutadi. K.M.F. “Islom ensiklopediyasi”ga yozgan “Chig‘atoy adabiyoti” nomli maqolasida N.ni Ahmad Yassaviydan so‘ng turkiy tilda ijod qilishga eng ko‘p sa’y qilgan adib, deb e’tirof etgan.

Olim 1941-y. N.ning 500 yillik tavalludi munosabati bilan bitgan “Alisher Navoiy” maqolasida XIV asrning ikkinchi yarmi o‘zbek adabiyotini tadqiq etarkan, Boyqaro va N.ning bu davrdagi porloq madaniyat inkishofining asosiy omillari bo‘lganliklarini qayd etib, – “turkiy madaniyat tarixida bu (inkishof davri)ni Boyqaro-Navoiy davri deb atash yanglish bo‘lmas”, deydi va bu davr Xuroson va Hirot uchun oltin davr bo‘lganligini qayd etadi. Shuningdek, olim mazkur risolasida: “U (Navoiy) faqatgina O‘rta Osiyo turkiylarining, ya’ni o‘zbek adabiyotining buyuk shoiri bo‘libgina qolmagan, asarlarini yuz yillardan beri turk dunyosining har tarafida, Ona-

do‘li va Rumelida, Ozarbayjonda, Eronda, Iroqda, Qrimda, Volgabo‘ylarida, turkmanlar orasida, hatto Hindistondagi turk saroylarida o‘qilgan!”, deb yozadi. Ko‘pruliga ko‘ra, Fuzuliy va Nasimiyni istisno qilganda, ruhining ohanglarini O‘rta Yer dengizi sohillaridan Koshg‘arga, Volga bo‘ylaridan Mojaristonga qadar bu darajada kuchli taratgan bir shoir yo‘qdir. XVI–XVII asrlarda ayrim mualliflarning chig‘atoychani N. tili deb bilishlari, N. asarlari uchun tuzilgan maxsus lug‘atlar Onado‘li va Rumelida N. asarlarini o‘qitish jarayonida ularga ehtiyoj tug‘ilganiga e’tibor qaratadi.

Eng muhimi, K.M.F. turk tarix jamiyati nomidan yozgan kichik, ammo keng qamrovli maqolada N. adabiy merosidan turk madaniyati nuqtayi nazaridan qanday foydalanish mumkinligini ilmiy asoslab bergan. Bu tadqiqotlar o‘zbek n.shunoslari ulug‘ mutafakkir ijodkorning yolg‘iz milliy adabiyotimizga emas, balki, umuman, turkiy ellar badiiy ijodiga o‘tkazgan ta’siri b-n ham maxsus qiziqishi lozimligini ko‘rsatadi.

Ad.: *Köprülü Fuad (1934). “Ali Şir Nevâî ve Tesirleri, Türk Dili ve Edebiyatı Hakkında Araştırmalar”, Kanaat Yay., – İstanbul; Köprülü, Ali ŞirNevâî, Edebiyat Araştırmaları II, İstanbul, 1989; Köprülü F. Çağatay Edebiyatı. İslam Ansiklopedisi, 3.cilt, 1997; Köprülü Fuad. “Ali Şir Nevâî”, Edebiyat Araştırmaları, II. Cilt, haz. Orhan Köprülü, 2. baskı, Akçağ Yay., – Ankara, 2004, (1941’de Nevâî’nin 500. doğum yılı dolayısıyla TTK adına yapılan konuşma).*

N.H.

“KO‘RLAR VA FIL HIKOYATI” – N. ning “L.T.” dostonidagi hikoyatlardan biri. Asarda Simurg‘ni izlab yo‘lga otlangan qushlar bosib o‘tadigan vodiy yettiga ajratiladi.

Har bir vodiyning ta’rif-u tavsifidan so‘ng, Haq yo‘lchisining maqomini yanada yorqinroq ko‘rsatib berish maqsadida “tamsil” deb nomlangan maxsus boblar keladi. Mazkur tamsillar kichik hikoyatlardan iborat. “Ma’rifat vodiysining vasfi”dan so‘ng “Ko‘rlar va fil” hikoyati keltiriladi. U ma’rifat vodiysi hamda oriflik maqomining mazmun-mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

“Haqqa borish yo‘llari inson nafasi yanglig‘”, deydi N. ham. Bu yo‘lda pashsha-yu fil, Fir’avn-u Muso, Dajjol-u Iso bor. Kimdir Lotni panoh etsa, kimdir “La ilaha illalloh” deydi. Ular har biri o‘zicha haq. Insonning zalolati va hidoyati, taraqqi-yu tanazzuli ma’rifatidadir. Ushbu vodiyda kimdir adashib yo‘lni yo‘qotadi, kimdir halok bo‘ladi, kimdir manzilga yetadi. Ammo uzun va xatarli yo‘lni bir qadam qilish chorasi bor. Bu bor-u yo‘qdan voz kechish, tajrid-u tafrid aylashdir. Ushbu haqiqatni oldinroq manzilni qat’ etgan yo‘l qorovuligina aniq ko‘rsata oladi:

Chun suluk ichra ko‘p erdi ixtilof,
Ko‘pragi durd erdi, lekin ozi sof.
Kim ravishda sofi erdi mashrabi,
Bor edi ul tobeyi shar’i nabi,–

deya muallif ma’rifat vodiysining ta’rifini yakunlaydi. Yo‘l nihoyasiga yetib, xazinani qo‘lga kiritgan to‘g‘ri yo‘l egalari nabi shar’ig‘a itoat qilganlar. Demak, to‘g‘ri yo‘l dini islom, shariati Muhammadiyadir. Zikr ahli go‘zal kalimayi Tavhid – La ilaha illalloh, uning mukammalligi esa Muhammadur rasululloh – Muhammad uning rasuli iqrori bilan deyishadi. Shunday ekan, fano vodiysiga yetish va baqobillohga yuz tutish – “Barchalaringiz Allohning arqoniga bog‘laningiz va bo‘linmangiz”, oyati bilan Qur’oni Karim va Hadisi sharifni hayot mezoniga aylantirish, ilohiy amrlarga buysunish, taqdiri azalga rizo bo‘lish va shukr etish. Mana shu yo‘l turli-tumanligi kabi haqiqatlar ma’rifat vodiysida anglashiladi. Naql qilishlaricha, bir guruh ko‘rlar musofirlik yoxud asirlik tufayli Hindistonga borib qolibdi. Bir zamonlar o‘tgach, taqdir taqozosi bilan ular o‘z yurtlariga qaytib kelishibdi. Bir kishi ulardan so‘rabdi: “Hindistonda fillarni ko‘rdinglarmi?”. Ular: “Ha”, – deya javob berishibdi. “Ko‘rgan bo‘lsangiz dalil keltiring-chi”, – debdi o‘sha kishi. Ammo ular filni

ko‘rmagan, hatto yaxshi so‘rab-surishtirmagan ham edi. Har biri filning bir a’zosini paypaslab, u haqida o‘zicha tasavvur, bilim hosil qilgan edi, xolos. Shu sababli fil qo‘llarini ushlagan basir fil sutunga o‘xsharkan desa, qornini paypaslagan “yo‘q, u besutun” deydi. Xartumini ushlagan filni ajdahoga o‘xshatsa, tishlarini ushlagan biri filni ikkita suyakka, quyrug‘idan xabar topgan kishi esa filni osilib turgan ilonga qiyos etadi. Filning boshini paypaslash nasib etgan kishi uni bir qoyaning tumshug‘i, deya sharhlaydi. Nihoyat, filning quloqlarini paypaslagan kishi uni qimirlab turgan ikki yelpig‘ich, deya ta’riflaydi. Ular ko‘rlik yuzasidan shu tariqa turli so‘zlar aytdilar. Garchi barcha so‘zlari rost bo‘lsa ham ularning hammasi nuqsonli edi. Shu bilan birga bu ta’riflarda tartib ham yo‘q. Shuning u-n ham filbonlikda yetuk donishmand ustod, o‘zi hind bo‘lgan kishi fil haqida naql qilganlarni malomat qilmasdan shunday deydi: “Har bir odam fil haqida bilganlaricha xabar berishdi. Ular bir-birlariga zid fikrlarni aytgan bo‘lsalar ham uzrlidir. Zero, ularning har biri bilganicha so‘zladi, biroq birortasi filni ko‘rmagan edi. Lekin ular aytgan sifatlarning bari jamlansa, bir ma’rifat yuzaga keladi, ulardan fil haqida muayyan tasavvur dunyoga keladi. Komil ko‘ruvchi zot buni aniq bilgani u-n, hech ikkilanmasdan, ko‘rlarning barcha so‘zlarini chin deya tasdiqlaydi. Mazkur hikoyat orifona mushohada ila tahlil va talqin qilinsa, tariqatning ma’rifat bosqichi haqidagi tasavvurlar tiniqlashadi. Hikoyatda e’tibor berish zarur bo‘lgan jihatlar: ko‘rlar, fil, filbon donishmand kabi laduniy timsollar va joyning Hindiston deya tanlanishi. Ko‘plab talqinlarda ta’kidlanganidek, hikoyatda Hindiston Haq dargohini tamsil etgan. U yerga yo‘l olgan ko‘rlar Haq irfoniga talabgor yo‘lchilardir. Filbon esa komil murshid, fil haqidagi ma’rifatdan xabardor orifibilloh. Shu bois u ko‘rlarning holini anglaydi va ularni ayblamasdan har birining so‘zini rost deydi. Zero, nafs tarbiyasida qanchalar ma’rifatga erishib, solik yuksak martabalarga ko‘tarilsa ham Alloh azza va jallaning biror ism, fe’l va sifatlari tajallisini anglab yetadi, xolos. Demak, dahri dunda musofir inson Haqni, ma’rifat nuri ila ko‘ruvchi basirlar filni o‘z ilm-u irfoniga yarasha tasavvur etadilar. Biroq Allohning mutlaq zotiga erishish baribir imkonsizdir. Shunga qaramay bu sifatlar birlashtirilsa, Zot haqidagi tasavvur mukammallashadi:

Lek jam’ o‘lg‘onda bu barcha sifat,
Pilg‘a hosildur ul dam ma’rifat.

Sayri sulukda bosib o‘tilishi shart bo‘lgan ma’rifat vodiysidan murod-maqsad ham ana shudir.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

Z.R.

KO‘HAK (f. – tog‘cha, kichik tog‘cha) – Zarafshon daryosining qadimiy nomi. Aslida Zarafshon tizmasidagi shu nomli tog‘ etagidan oqib o‘tgani u-n shunday atalgan (Obi Ko‘hak – Ko‘hak suyi). “Boburnoma”da K. Samarqand shimolidan taxminan 4 km. naridan oqib o‘tishi, shahar b-n daryo orasida bir tepalik bo‘lib, u K. deb atalishi, bu uning etagidan oqishi u-n ham K. suyi deyilishi haqida ma’lumot beriladi.

“S.I.” dostonining Iskandar Movarounnahrni olib, Samarqandni bino qilgani tasviriga bag‘ishlangan 35-bobida N. K.ni jannat daryosi sifatida tasvirlaydi, uning suvi ming dardga davo ekanligi, u tufayli qancha shahar-u qishloq obodligini aytadi:

Va lekin bu rudeki, derlar Ko‘hak,
Ki, yo‘q ravzaning nahri erkonga shak.

Ki, ichgach tavono bo‘lub notavon,
Guzar aylabon umr yanglig‘ ravon.

Ki, andin ne bir shahr obod o‘lub,
Ne ma’murasidin birov shod o‘lub...

Xususan, Ko‘hak rudikim, nahri Nil
Emas oncha, ne Nilkim, ne Salsabil.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Бобурнома. – Т., 2002; ЎзМЭ, 5-жилд. – Т., 2003.*

E.O.

KO‘HI QOF – afsonaviy tog‘. Sharq xalqlari og‘zaki ijodida sehrli afsonalarda eng baland va eng uzoqdagi tog‘ sifatida keladi. Go‘yo K.Q. orqasidagi mamlakatda dev va parilar yashar emish, turli afsonalar qahramonlari o‘z ma’shuqalarini izlab, behad azob-uqubatlar tortib, bahaybat devlarni yengib maqsadlariga erishadi. K.Q. ajoyib-g‘aroyib voqealar rivojida xayoliy badiiy obraz rolida nasriy rivoyatlarda va klassik poeziyada ham uchraydi.

N. asarlarida K.Q. obrazi mahobatli, viqorli ma’nosida, matonatli, saboqli, sabrli, sirli tog‘ ma’nosida keladi. M-n, N. “G‘.S.” devonida mashhur:

Parim bo‘lsa, uchub qochsam ulustin
to qanotim bor,
Qanotim kuysa uchmoqdin,
yugursam to hayotim bor,

deb boshlanadigan g‘azalidagi:

Tilar ko‘nglum qushi Anqodin o‘tsam nari
yuz vodiy,
Munungdek sayr etarga Qofdin
ortuq sabotim bor,

baytida mashaqqatlar chekib, yuz vodiy nariga qochadigan bo‘lsam, K.Q. tog‘idan ortiq sabotim bor, deydi shoir. Ba’zi she’rlarda esa lirik qahramon chekkan dard-u alamlarning og‘irligi K.Q. tog‘iga barobardir, deydi. Ba’zan esa shoir o‘z shavqini K.Q.ga o‘xshatadi. K.Q. tog‘i N. ta’rifida goh “vajhi maoshiy”ga qon, goh Anqo yoki Simurg‘ kabi afsonaviy qushlarga oshiyon.

Desangki, hajr yukin tortqil, ne choram bor –
Ki, Qof tog‘ini xas uzra qo‘ysalar ko‘tarur.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

E.O.

L

LAAZIDANNAKUM (Albatta, sizlarga ziyoda qilurman...) – Ushbu iqtibos Qur'oni Karimning Ibrohim surasi, 7-oyatidan olingan bo'lib, to'liq ma'nosi quyidagicha: "Yana Rabbingiz e'lon qilgan (bu so'zlar)ni eslangiz: "Qasamki, agar (bergan ne'matlarimga) shukr qilsangiz, albatta, (ularni yanada) ziyoda qilurman. Bordi-yu, noshukrlik qilsangiz, albatta, azobim (ham) juda qattiqdir".

N. "H.A."ning uchinchi "Salotin bobi"da podsholik va podsholikka xos bo'lgan bir necha sifatlar haqida gapirib, Tangri podsholarga imtiyozlar berish barobarida, Tangriligini oshkor etib, sultonlardan ham ba'zi narsalarni talab qilganini aytadi. Ulardan biri, berilgan ne'matlarga shukr qilishdir. N. shu o'rinda ma'noni kuchaytirib, inson shokir bo'lishi, Tangri shukri bor kishiga ne'matini yanada ziyoda qilib berishini eslatib o'tadi:

Biri aning ne'matig'a shukr erur,
Kimsaki, shukr aylasa ko'prak berur.

Shukr qilib aylamasang ushtulum,
Deb o'zikim, "laazidannakum".

Ad.: *Қуръони Карим. Маъноларининг таржима ва тафсири. – Т., 2018. (Тарж. Шайх Абдулазиз Мансур). Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011.*

S.R.

LAB – tasavvuf istilohida ma'naviyat olamidan anbiyoga malaklar vositasida, avliyoga esa ilhom orqali nozil bo'ladigan kalom. Pirning ilohiy ma'rifatga kon so'zi va uning mazmuni ham ko'zda tutiladi. L. suvi obi hayotga, ya'ni ishq-u muhabbat chashmasiga tashbeh qilinadi.

L.dan maqsad mavjudotga ilohiy fayz yetkazuvchi rahmoniy nafas va ko'nglini ma'rifat nuriga oshno etuvchi ilohiy so'z bo'lganligi u-n u tasavvuf she'riyatida turli-tuman ma'nolarda keng qo'llanadi. N. ijodida ham uning rang-barang talqinlariga duch kelamiz. M-n, komil insonning o'zida ilohiy fayzni mujassam etgan L.dek jonparvar dunyoda yo'q. Chunki bu L.dan chiqqan so'z obi hayot ichra pinhon ilohiy ruhga o'xshaydi:

Lablaringdin ruhparvar nutq zohirdur magar,
Ruhi qudsiy obi hayvon ichra orom aylamish.

Tasavvuf istilohi sifatida oshiqning ma'shuqasidan bo'sa istashi – muridning murshid so'ziga tashnaligi, u orqali ilohiy sirlardan bahramand bo'lish orzusini anglatadi. Irfoniy mazmunga yo'g'rilmagan so'zdan haqiqat tolibi zavq olmaydi. Shu ma'noda, "Labingdan so'rdirib, meni shirinkalom etgil", mazmunidagi iltijolardan maqsad-ma'rifat asrorini anglashga intilishdir:

La'li ruhafzosidin bir bo'sa payg'om ayladi,
Garchi yolg'on erdi, men jon toptim ul payg'omdin.

"Labidan harchand so'rub ham og'zining so'rog'ini topmadim" degan jumlani esa ayni jihatdan har qancha intilib ham ma'rifat siriga yetmaganlik ma'nosida talqin qilish mumkin:

Bovujudikim, adam bo'ldum g'amidin qayg'urub,
Hech og'zining so'rog'in la'lidin topman so'rub.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва таъбироти ирфони. – Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.); Ҳаққул И. Тасаввуф сабоқлари. – Бухоро, 2000; Абдуқодиров А. Тасаввуф истилоҳларининг қисқача изоҳли луғати. 2-китоб. – Хўжанд, 2002.*

E.O.

LAVLOK – “Lavloka lamo xalaqtul aflok” – “Agar sen (Ey Muhammad), bo‘lmasayding, Men falaklarni yaratmasdim”, degan hadisi qudsiy. Bu hadis N. asarlarida qisqartma shaklida “lavlok” ko‘rinishida qo‘llanadi va asosan, hazrat Payg‘ambarimiz (s.a.v.)ni sifatlashda, ta’riflashda qo‘llanadi. N. “V.” asarining muqaddimasida shoir hazrat Payg‘ambarimiz (s.a.v.)ni sifatlab kelib, shunday deydi:

Qaysi til birla, yo nabiyalloh,
Seni ta’rif etay mene gumroh.

Madhi zotingda Haq debon lavlok
Lam yakun zolikal-ulluvvi sivok.

Ey Allohning Payg‘ambari, menday gumroh odam, seni qaysi til bilan ta’riflay! Haq sening zotingni madh etib, “Lavlok...” – “Agar sen (Ey Muhammad), bo‘lmasayding, Men falaklarni yaratmasdim”, dedi. Bunday ulug‘ ta’rif sendan boshqasi haqida bo‘lmagan.

“G‘.S.” devonida ham N. “L.” so‘zini keltirib, hazrat Payg‘ambar (s.a.v.)ni maqtaydi, falaklar tufayli yaratilganiga ishora qiladi:

Ey, deb sifatingda ahli idrok,
Lav loka la-mo xalaqt ul-aflok.

Aflok nechukki xoki rohing
Ul yo‘ldaki, ojiz o‘ldi idrok.

Desam aflok erur tufayling
Basdur guvahim hadisi “lavlok”.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик, 2-жилд. – Т., 1983; Алишер Навоий. Вақфия. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

S.R.

“LAVOYEH” (“Loyihalar”) – Abdurahmon Jomiyning tavhid, fano, baqo va ma’rifat masalalarini yoritishga bag‘ishlangan fors tilida nazm-u nasr aralash yozilgan 36 loyiha (kichik maqola)dan iborat asari (1465). Jahongirshoh Qoraquyunliga (hukmronlik yillari 1437–1468) bag‘ishlangan bu asar “Risola dar bayoni maorif va maoniy” (“Maorif va ma’nolar bayoni haqida risola”) nomi b-n ham yuritiladi. Uning asosiy mazmuni nasrda yozilib, fikr tasdig‘i sifatida har bir loyihaning oxirida bir-ikki falsafiy-tasavvufiy mazmundagi ruboiy keltiriladi. Ayni jihatdan u muallifning “Sharhi ruboiyot” asariga o‘xshab ketadi. Sharhda Ibn Arabiy qarashlarining ta’siri yorqin sezilib turadi. O‘rni-o‘rni b-n “Masnaviyi ma’naviy” va “Gulshani roz” asarlaridan ham fikrlarini tasdiqlash maqsadida baytlar keltiradi. Tajalliy xususida ham mulohaza yuritadi; izlanishdagi solik mavqeyini muhim deb biladi; komil inson tushunchasi yetakchi o‘rin egallaydi. Vahdat ul-vujud ta’limoti asosida olamning yaralishi sirini shunday tushuntiradi: “Olam Haq zohiridir va Haq olam botinidir. Odam Haq aynining zuhuridan oldin bor edi, Haq olam aynining zuhuridan keyin”. Ustozi Jomiy huzurida “L.”ni xatm qilgan N. bu asar “so‘fiya mashoyixi istilohida bitilibdurkim, andoq risola hech roqim (muallif)ning qalamidin va hech qalamning raqamidin tahrir topmaydir”, deb ta’riflaydi. “L.”ga qator sharhlar bitilgan. Abdumalik Abdulg‘afur al-Ansoriyning “Ashi’at ul-Lavoyeh” (“Lavoyeh shu’lalari”) va Mullo Imodning “Sharhi Lavoyehi Jomiy” (“Jomiy Lavoyehi sharhi” asarlari shular jumlasidandir.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамсат ул-мутаҳаййирин. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. –*

T., 2011; Холмўминов Ж. Жомий ва ваҳдат ул-вужуд таълимоти. – T., 2008; Ғаниева С. Навоий ёдга олган асарлар. – T., 2004.

S.G‘., E.O.

“LAVOME’” (“Shu’lalar”) (To‘liq nomi: “Lavome’ fi sharhi qasidayi mimiyai xamriyai Foriziya” “Forizning may haqidagi qofiyasi “mim” (“m”) harfli qasidasiga sharh shu’lasi”) – Abdurahmon Jomiyning “Sulton ul-oshiqin” (“Oshiqlar sultoni”) laqabi b-n mashhur bo‘lgan arab shoiri Sharafiddin Abu Hafs Umar ibn Ali al-Forizning (1181–1234/35) tasavvufiy-ramziy mazmunga ega bo‘lgan may haqidagi qasidasiga yozgan sharhi (1470). Asar muqaddima va 50 lam’a (shu’la, ya’ni kichik parcha, maqolacha) dan iborat. 30 sahifalik salmoqli muqaddimada vujud bosqichlari, ishqning asl mohiyati va haqiqati xususida bahs yuritiladi. So‘ng bir qadar sodda va ravon uslubda Ibn Foriz qasidasi sharhiga o‘tiladi. Bunda u Ibn Arabiy qarashlariga tayanadi. Asarning 1-qismi nasrda yozilgan bo‘lib, unda Allohning yagonaligi, kasrat olami va uning rang-barangligi, oshiq va ma’shuqning birligi, ishq mayi va mastlik holati kabi masalalar haqida so‘z boradi va oxirida bir yoki bir necha ruboiy keltiriladi. 2-qismda esa avval qasidadan bir bayt keltirilib, undagi so‘z, ibora va ishoralar sharhlanadi, keyin ularning ma’nosi nasrda bayon qilinadi. Oxirida o‘sha arabcha bayt ruboiy shaklida forsiyga tarjima qilinadi. May – ilohiy ishq sarxushligining bayoni bo‘lgan “L.” tasavvuf falsafasining o‘ziga xos nazmiy qomusiga o‘xshaydi. “L.”dagi asosiy masala vahdat ul-vujud talqinidir. Jomiy huzurida “L.”ni o‘qigan N. uni “har shu’lasining uchquni solikka g‘am-u qayg‘uning qorong‘i tunida hidoyat sham’ining nishonidir, balki inoyat mash’alining nurlaridir”, deb ta’riflaydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамсат ул-мутаҳаййирин. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – T., 2011; Ғаниева С. Навоий ёдга олган асарлар. – T., 2004; Абдуқодиров А. Тасаввуф истилоҳларининг қисқача изоҳли луғати. 1-китоб. – Хўжанд, 1997; Холмўминов Ж. Жомий ва ваҳдат ул-вужуд таълимоти. – T., 2008.*

Ab.A., E.O.

LAYYO – Ya’qub (a.s.)ning xotini. U haqidagi ma’lumot “Ya’qub (a.s.)” zikrida uchraydi. Lubnonning katta qizi. Ya’qub (a.s.) unga oshiq bo‘ladi. Lubnon bu qizini unga berish u-n yetti yil uni sinagan. Ya’qub (a.s.)ning hech narsasi yo‘qligi u-n uning qo‘lida yetti yil cho‘ponlik qilgan. Sinovdan o‘tgach, qizi L.ni unga nikohlagan. Xullas, Ya’qub (a.s.) asar syujeti bo‘yicha, Lubnonning Rohil va L. qizlariga uylangan. Lekin payg‘ambarlar tarixida L. Rohilchalik mashhur emasdi. Rohilni mashhur qilgan o‘g‘li Yusuf (a.s.) b-n bog‘liq go‘zal qissalardir.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – T., 2011.*

B.R.

LAYLAT UL-QADR (ar. – qadr kechasi) islom aqidasiga ko‘ra, ramazon oyining 26-dan 27-ga o‘tar kechasi. Bu kechaning ulug‘lanishi Qur’oni Karimning shu kechada nozil etila boshlangani, bu kechada qilingan ibodat ming oylik ibodatdan afzal ekani to‘g‘risida Qur’onda bashorat berilgani bilan izohlanadi. Islomiy manbalarda aytilishicha, bu kechada osmon farishtalari Jabroil hamrohligida yerga tushib, tong paytigacha bir yillik ishlar rejasini tuzar va tuni b-n yana musulmonlar u-n istig‘for aytib, gunohlarini kechirishini so‘rab, Allohga iltijo qilar ekanlar. N. g‘azallaridan birida shunday deydi:

Zulf-u ruxsor ila komimg‘a meni yetkursang,
Har tunung qadr o‘lubon,
har kunung o‘lsun navro‘z.

Mazkur baytda lirik qahramon – oshiq, zulf (Ilohiy asror) va ruxsor (Ilohiy lutflar) b-n uni or-

zusiga yetkazgan kishiga eng ezgu tilak bildiradi. Uning har bir tuni qadr kechasi va har bir kuni Navro‘zga o‘xshab, mazmunli va farahbaxsh o‘tishini tilaydi. Bu o‘rinda zulf o‘zining mohiyati va qoralik sifati bilan qadr kechasiga, ruxsor esa yorug‘lik va shodlik ulashish xususiyati b-n Navro‘z kuniga tashbeh qilinmoqda. N. na’t xususiyatidagi boshqa bir g‘azalida yor xatini (buyuklik va Muhammadiy haqiqatni) L.Q. shomiga o‘xshatgan:

Xatingg‘a qadr shomi o‘xshag‘ay bu
shart birlankim,
Tajalli nuridin ul shom arosinda
sahar bo‘lg‘ay.

N. ijodida “qadr” lafzi L.Q.ga ishora qilish b-n birga, lug‘aviy mazmunida hamda o‘zak so‘zlarga qo‘shilib, “sipehrqadr”, “oliyqadr”, “Jamqadr” kabi kalimalar tarkibida ham faol ko‘zga tashlanadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик, 3-жилд. – Т., 2011; Ислом. Энциклопедия. – Т., 2004.*

S.R.

LAYLI – N. qalamiga mansub “L.M.” dostonining asosiy qahramonlaridan biri. Arabistondagi Hay qabilasi boshlig‘ining qizi.

Guldek yuz ila bu toza gulshan,
Aylab otaning ko‘zini ravshan.

Qizining yaxshi tahsil olishi u-n u uyida maktab ochib, o‘z davrining eng donishmand muallimini dars berishga jalb qiladi. “Ta’lim olibon farishtadin hur”, – deb lutf etadi ustoz va talabani ta’riflab shoir. Voqean, favqulodda qobiliyatlari b-n hammani hayratga solgan Qaysga ham munosib muallim izlay-izlay oxiri uni shu maktabga beradilar. Qays ham malak tabiatli, nufuzi ko‘kka yetgan ana shu qilni qirq yoradigan nuktadon ustoz qo‘lida o‘qiy boshlaydi.

Topshirdilar oni nuktadong‘a,
Gavhari Muhiti bekarong‘a.

L. obrazi misolida shoir ayolning jamiyatdagi mavqeyi, oiladagi o‘rni, ayolga munosabat, ayol va muhabbat, ayol qalbi, ayol qadri kabi qator ijtimoiy-ma’naviy masalalarni ko‘taradi. Shayxzodaning yozishicha, Layli vafo, hayo, odob, aql-u kamol, ilm-u fazilat, mislsiz husn-u jamol tajassumi. N.ning uni “Arab balosi” deb atashida ham aslida tanqid emas, ta’rif mujassam. Doston davomida uni istiora yo‘li b-n pari, hur, parizod, sarvi gulxad, oy, quyosh, moh, mohvash, dilafro‘z, dilorom, mohliqo, diloro, mohpora, gulrux, sarv, sarvi navxez, dildor, parivash, sho‘x kabi ko‘pdan-ko‘p sifatlar b-n zikr etadi.

Husn ichra ayog‘idin boshi xub,
Boshtin-ayog‘ig‘a tegru mahbub.

Qaysni ilk bor ko‘rganidayoq, “joni zori shavq o‘tiga tushgan” L.ning ishqi ham unikidan kam emas. Lekin u ayollarga xos noziklik b-n sevgisini yashiradi. Gap-so‘zga qolmaslik u-n har xil choralarni ko‘radi. Lekin dastlab dugonalari, keyin doyasi bu sirdan xabar topadi. Qaysning uning ishqida aql-u hushini yo‘qotib, har kecha oh urib, Hay qabilasiga kelishi esa bu mojaroni elga doston qiladi. L. Qaysning ovozini eshitib, u b-n uchrashuvga chiqadi. Lekin pok oshiq-ma’shuqlar bir-birini ko‘rishi b-n oh urib, o‘zlaridan ketadilar. Doya mehribonlik qilib, ularning uchrashuvlarini yashirib yuradi.

Bu ishq mojarosidan L.ning otasi xabar topib, bir telbaning gulday qiziga oshiq bo‘lganligidan ori keladi va “O‘g‘lingni tiyib ol, agar eplolmasang, zanjirband qil!” – deb Majnunning otasiga dag‘dag‘a b-n xabar jo‘natadi. L.ni esa Bani Asad qabilasining boshlig‘i bo‘lgan Ibn Salom degan mol-mulki had-hisobsiz “o‘zi ham obro‘-shukuhli” kishiga nikohlaydi. Bundan xabar topgan L. g‘am-u iztirobda qoladi.

L.ning ishqi shunchalik kuchliki, Majnunni Navfalning qiziga uylanayotganini eshitib, “Sen

u b-n baxtli bo‘lsang, men o‘zimni ikki karra baxtli his qilaman”, deydi. Ayni paytda o‘zini o‘ldirmoqchi bo‘lib, nikoh go‘shangasiga o‘zi qo‘ynida tig‘ olib kiradi. Baxtga qarshi, to‘y xursandchiligidan ko‘p ichib qo‘ygan Ibn Salomning quyanchiq (tutqanoq) kasali tutib, o‘zidan ketib qoladi. Hamma uning boshiga yig‘ilganidan foydalangan L. sahroga chiqib ketadi va bepoyon sahroda charx urgancha o‘zi sari kelayotgan Majnun b-n uchrashadi.

L. sevgisiga sadoqatli, sevgilisiga mehribon qiz. Navfal otasiga qarshi kurashganida ham “Sening maqsadingga yetishingni tiladim”, – deydi. Majnunning ota-onasi o‘lib, kimsasiz qolganida esa ham Majnun, ham uning ota-onasi u-n qayg‘uradi, ya’ni Majnunda faqat ota-onasining g‘ami bo‘lsa, unda yana sevgilisining g‘ami ham mavjud.

Anga ato-anoning g‘amidur,
Ham bu manga, ham aning g‘amidur.

L. o‘limidan oldin onasiga Majnun b-n birga ko‘mishlarini vasiyat qiladi. Bu dunyoda birbirimizga yetmaganimizga yarasha u dunyoda birga bo‘laylik deydi. Mahbubasining jon taslim qilayotganini ichki bir tuyg‘u b-n sezgan Majnun so‘nggi lahzada yetib keladi. Uning eshikdan kirganini ko‘rgan L. xotirjam jon beradi. Majnunning ruhi ham sevgilisini izlab, tan qafasini tark etadi. Vasiyatini ado etib, ikkalasini bir tobutga solib, qabrga qo‘yadilar.

L. obrazida dunyoviy va ilohiy ishq o‘zaro omuxta bo‘lib ketgan. Majnunga yo‘llagan maktubida sen er kishi bo‘lganing u-n, hatto sahroda ham erkinsan, men esa ojiza bo‘lganim u-n hammasini yashirib yashashga mahkumman, deb zorlanishlari, baxt tilasa-da, Navfalning qizidan rashk qilishi va boshqalar dunyoviy talqin ekani, shubhasiz. Dostonda uning ilohiy mahzar o‘laroq tasvirlangani, N. ilohiy tajallini Layli timsolida badiiy talqin etgani, meni bu qadimiy g‘amgin afsonaning o‘zi emas, balki botiniy mazmuni qiziqtirgan edi, shuning u-n menga ayni voqea shakl bo‘lib xizmat qildi, ma’no esa majoziy ishqning taraqqiy etib, haqiqiy ishqqa aylanishini ko‘rsatishdan iborat bo‘ldi, deyishi asarda tasavvufiy qatlam yetakchi va asosiy ekanligidan dalolat beradi. Shoirning o‘zi ham dostonni o‘qigan o‘quvchi uning ustida tafakkur qilib, asl maqsadini – voqealar qatiga yashiringan botiniy g‘oya va mazmunni anglab yetishini istaydi:

Har neki o‘qur, taammul etsa,
Degan g‘arazim taxayyul etsa.

Ad.: *Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. –Т., 2011; Комилов Н. Тасаввуф. – Т., 1996; Ҳаққул И. Тасаввуф ва шеърият. –Т., 1991; Очилов Э. Мажнун – Ҳақ ошиғи // Навоийга армуғон. – Т., 2004.*

E.O.

“LAYLI VA MAJNUN” I – Nizomiy Ganjaviy (1141–1203) qalamiga mansub doston. Nizomiy vafotidan keyin uning boshqa dostonlari qatorida noma’lum tuzuvchilar tomonidan yagona bir majmua tarkibiga kiritilgan va bu besh dostondan iborat majmua “Xamsa” deb atala boshlagan. Doston 1188-y.da yozib tamomlangan. Bu asar mashhur arab afsonasi asosida yozilgan birinchi doston hisoblanadi. Tadqiqotchilar Nizomiyning yuqorida tilga olingan afsonadan tashqari yozma manbalardan, jumladan, Ibn Qutayba (889-y.da vafot etgan), Abul Faraj Al-Isfahoniy (897–967) asarlaridan ham boxabar va ulardan foydalangan bo‘lishi mumkinligini qayd etganlar.

Dostonning muqaddima qismi, xususan, undagi borliqning yaratilishiga bag‘ishlangan bob Nizomiyning diniy-falsafiy qarashlarini o‘zida aks ettiradi. Shuningdek, muqaddima boblari asarning yaratilish tarixiga oid ma’lumotlarni hamda Nizomiyning didaktik fikrlarini ham o‘z ichiga olishi bilan ahamiyatlidir. Asarning asosiy qismini esa “L.M.”ning fojiali muhabbat qissasi tashkil etadi.

Nizomiy xalq poetik tafakkurining mahsuli bo‘lgan ushbu afsonaning ajoyib, go‘zal ba-

diiy talqinini beradi, uning qahramonlarini har jihatdan mukammal badiy obrazlar darajasiga ko‘taradi. Dostonning asosiy syujet liniyasi Majnunning tug‘ilishi, maktab yoshiga yetishi va o‘qishga borib, Laylini ko‘rishi bilan boshlanadi va ularning bir-birini sevib qolishi, Majnunning otasi sovchilikka borishi va rad javobini olishi, uning Majnunni Ka’ba ziyoratiga olib borishi, Majnunga nasihati va uning javobi, Ibn Salomning Layliga sovchi yuborishi haqidagi boblarda rivojlanib boradi. Keyingi boblarda Majnunning Navfal b-n uchrashuvi, Navfalning Layli qabilasi bilan urushi, otasi Laylini Ibn Salomga bergani, Majnunning o‘z otasi bilan vidolashuvi va uning otasi vafotidan xabar topishi, Majnunning yirtqich hayvonlar bilan do‘stlashgani, Laylining Majnunga noma yuborgani, uning Layliga javobi, Majnunning onasining vafot etishi kabi voqealar o‘z badiiy ifodasini topgan. Syujet liniyasining so‘ngi qismlari Laylining Majnunni chorlashi, Laylining vafoti va uning mozorida Majnunning ham jon taslim qilishi kabi voqealarni o‘z ichiga oladi. N. o‘z dostonini yaratishda Nizomiy asaridan ilhomlangan. Nizomiyning “Layli va Majnun”iga N. yuksak baho bergan va shoirning bu boradagi fikrlari u yaratgan “L.M.” dostonining muqaddimasida hamda 9-bobida o‘z aksini topgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. –Т., 2011; Бертельс Е.Э. Низами. – М., 1947; Низами Ганджави. Собрание сочинений в трех томах. Том 2. – Баку,1991; Низомий Ганжавий. Лайли ва Мажнун. – Теҳрон, 2005.*

Q.E.

“LAYLI VA MAJNUN” II – Amir Xusrav Dehlaviy “Xamsa”sining uchinchi dostoni. Xusrav Dehlaviy Sharq adiblari orasida birinchi bo‘lib Nizomiyning besh dostoniga javob yozgan. Uning asari Nizomiy “Xamsa”sidagi “L.M.”ga javob tarzida yozilgan. Aslida Dehlaviy dostonining nomi “Majnun va Layli” bo‘lsa-da, lekin “L.M.” deb atalib ketgan. Doston Dehli sultonligining hukmdori sulton Alouddin Xiljiyga bag‘ishlangan va 1299-y.da yozib tamomlangan. Dehlaviy uni hazaj bahrining musaddasi ahrabi mahbuzi mahzuf vaznida (maf’ulu mafoilu faulun) yozgan. Dostonning muqaddima qismi an’anaviy hamd, na’t, shuningdek, Sulton Alouddin madhi, Shayx Nizom avliyo madhi, ikki dev va cho‘pon haqida hikoya singari boblarni o‘z ichiga oladi. Mazkur qismda muallifning o‘g‘liga atab bitilgan nasihati ham mavjud. Bu o‘rinda Nizomiy dostonining ta’siri seziladi. Ma’lumki, shunday bob Nizomiy “L.M.”da ham bor. Unda muallif o‘g‘li Muhammadga o‘z nasihatlarini bayon qiladi. Xusrav Dehlaviy dostoni muqaddimasining o‘ziga xos jihati unda hikoya ham keltirilishidir. Nizomiy dostoni muqaddimasida esa hikoya keltirilmagan. Asosiy qismda Layli va Majnun o‘rtasidagi muhabbat qissasi o‘zining badiiy ifodasini topgan. Xusrav Dehlaviy Majnun haqidagi xalq afsonasi, yozma manbalardagi ma’lumotlar va Nizomiy dostonidan foydalangan holda o‘ziga xos original asar yaratgan. U Qaysning tug‘ilishi, shu munosabat b-n o‘tkazilgan tantanalar, uning katta bo‘lishi, Layliga muhabbat qo‘yishi va bu muhabbat tarixi haqida, bir tomondan, an’anaviy syujetga xos asosiy nuqtalarni saqlagan, ikkinchi tomondan, uni yangi epizodlar va lavhalar b-n boyitgan holda hikoya qiladi. Doston yuksak badiiy mahorat va san’atkorlik b-n yozilgan. Tilining go‘zalligi va obrazliligi, badiiy san’atlarning mohirona qo‘llanishi, tasvirlarning yorqinligi – dostonning o‘ziga xos jihatlarini tashkil etadi.

Xusrav Dehlaviyning “L.M.” hajm jihatdan bir muncha ixchamligi bilan ham ajralib turadi. Ma’lumki, Nizomiy “L.M.” 4000 dan ortiq baytni tashkil etadi, Xusrav dostoni esa 2660 baytdan iborat.

N. “L.M.”ning to‘qqizinchi bobida o‘zidan oldin mazkur mavzuda asar bitgan adiblarni, shu jumladan, Xusrav Dehlaviyni ham tilga oladi. U Xusrav dostoniga yuksak baho bergan va “ran-

gin, ma’nisi daqiq, lafzi shirin” deb ta’riflagan. Ayni paytda u bu asarlar bilan o‘z dostoni o‘rtasidagi asosiy farq qiluvchi xususiyatni ham ta’kidlab o‘tgan.

Sabt aylamasang alarcha rangin,
Ma’nisi daqiq-u lafzi shirin.

Lek o‘lg‘usi dard-u so‘zi ko‘prak,
Hangomayi dilafro‘zi ko‘prak.

Xusrav dostonidan tasvirlangan tarixiy shaxslarning N. asarlarida ham tilga olinganligi diqqatga sazovordir. Jumladan, ularda Sulton Alovuddin Xiljiy nomi ham uchraydi. Xusrav Dehlaviy asarining bir bobi, yuqorida aytilganidek, shayx Nizom Avliyo madhiga bag‘ishlangan. Bu tasavvuf arbobining nomi N.ning “N.M.” asarida bir necha joylarda uchraydi. Tazkirada unga bag‘ishlangan maxsus qism ham bor va ana shu o‘rinda N. mazkur shayx haqida batafsil ma’lumotlar bergan.

Ad.: *Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Қаюмов А. Асарлар. 2-жилд. – Т., 2008; Бобур энциклопедияси. – Т., 2014.*

Q.E.

“LAYLI VA MAJNUN” III – N. “X.”sining uchinchi dostoni (1484). Ayni mavzudagi dostonlar u-n an’anaga aylangan hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf (maf’u(v)lu mafoilun fau(v)lun – – – V \ – V – V – \ V – –) va hazaji musaddasi axrabi maqbuzi maqsur (maf’u(v)lu mafoilun mafoiyl – – – V \V – V \– V – –) vaznlarida yaratilgan bo‘lib, 3622 baytdan iborat. Muallifning o‘zi “M.L.” asarida ta’kidlab ko‘rsatganidek, u taniqli fors-tojik shoiri Xoju Kirmoniyning (1281–1352) “Gavharnoma”siga tatabbu’ sifatida yaratilgan: “Layli va Majnun” vodiysida ishqim po‘ya urub, Xoju himmati “Gavharnoma”sida nisorimga gavharlar yetkurtur”.

Ba’zi tadqiqotchilar tomonidan bu syujetning qadimgi Bobil adabiyotidan arablarga o‘tgani haqida ham fikr bildiriladi.

“L.M.” qissasining ilk kurtaklari VII asrning 2-yarmiga borib taqaladi. Voqeiy sarguzashtlar va arab xalqlari rivoyat va afsonalari asosida vujudga kelgan. Ba’zi arab manbalarining ma’lumotiga ko‘ra, Majnun tarixiy shaxs bo‘lib, u Bani Omir qabilasiga mansub, asl ismi Qays ibn Mulavah (yoki Qays ibn Muod). U Layli degan o‘z qabiladoshini sevib, unga bag‘ishlab g‘amgin she’rlar yozgan. Jumladan, ibn Qutayba (889-y. da vafot etgan)ning “Kitob ush-she’r va shuaro”, Abulfaraj Isfahoniyning “Kitob ul-ag‘oni” asarlarida shunday ma’lumot keltiriladi. Lekin arab olimlari Hakim al-Qalbiy (VII asr) va Hishom al-Qalbiy (VIII–IX asrlar) Majnun tarixiy shaxs bo‘lmay, o‘z qarindoshining qizini sevib qolgan umaviy xonadoniga mansub bir yigit nomini sir tutish u-n Majnun taxallusini qo‘llagan, deb yozadilar. Shunga qaramay, VII asrning 2-yarmidayoq arab adabiyotida Majnun taxallusi b-n yozilgan ko‘pgina she’rlar vujudga kelgan va tobora ko‘payib borgan. Lekin bu she’rlarning barchasi ham bir kishiga mansub bo‘lmay, arab olimlari al-Johiz (IX asr) va al-Mu’taz (IX–X asrlar)ning aytishicha, Layli nomi b-n bog‘liq barcha she’rlarni kishilar Majnunga nisbat beraverganlar. XII asrda Abu Bakr al-Volibiy bu she’rlarni yig‘ib, devon tuzadi, ularni sharhlaydi va Majnun haqidagi rivoyatlar tarkibiga kiritadi. Ma’lum bo‘ladiki, Majnunning tarixiy shaxsligi, shuningdek, Majnun taxallusi b-n yozilgan she’rlarning muallifi masalasi munozarali. Lekin ushbu she’rlar asosida rivoyatlar yuzaga kela boshladi. Agar VIII asrda Majnun haqida ba’zi rivoyatlargina paydo bo‘lsa, IX acpga kelib ular ko‘paydi va keng tarqaldi. X asrda esa bu rivoyatlar Arabiston hududidan chiqib, Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida ham shuhrat qozondi. Rivoyatlar turli kitoblardan o‘rin olib, Majnun nomli shoirlarning she’rlarida zikr etila boshladi. Lekin bu rivoyatlar tarqoq lavhalardan iborat bo‘lib, mukammal syujet va kompozisiyaga ega emasdi.

“L.M.” afsonasi X asrdayoq forsiy adabiyotga kirib kela boshlagan. Rudakiy asarlarida ularga ishoralar mavjud. Jumladan, Rudakiy yozadi:

Bixandad lola bar sahro ba soni
chehrayi Layli,
Bigiryad abr bar gardun ba soni
diydayi Majnun.

(“Sahroda lola Layli ruxsoridek tabassum qiladi, ko‘kda bulut Majnun ko‘zidek yosh to‘kadi”).

XI–XII asrlardan e’tiboran “L.M.” haqidagi afsonalardan parchalar Abdulloh Ansoriy, Nosir Xusrav, Zahir Foryobiy, Abulhasan Jullobiy, Hakim Sanoiy asarlariga kirib kela boshladi. XI-asrdan Majnun fidoyi oshiq, haqiqiy solik ramzi o‘laroq tasavvuf adabiyotida o‘ziga xos mavqega ega bo‘ldi. XII asr oxirida “L.M.” dostonlari shuhrati butun Sharqqa tarqaldi.

Shunday qilib, Majnun nomi bilan bog‘liq she’rlar turli rivoyatlarning vujudga kelishiga sabab bo‘lsa, o‘z navbatida, rivoyatlar badiiy adabiyotda yirik asarlarning yaratilishiga turtki berdi. Yozma adabiyotda “L.M.” nomli 4 ming baytdan ziyod salmoqli dostonni birinchi bo‘lib, 1188-y.da Nizomiy Ganjaviy yaratdi. Bunda u o‘zigacha yaratilgan barcha rivoyat, afsona, dostonlar hamda Majnunga nisbat berilgan she’rlardan foydalanadi. G‘oyaviy-badiiy jihatdan yuksak asar darajasiga ko‘tarilgan bu doston keyin xamsachilikning an’anaviy dostonlaridan biriga aylandi.

“L.M.” mavzusida Ashraf Marog‘iy, Shohidiy, Nomiy Safaviy, Shu’la Isfahoniy, Kavkabiy, Xizrshoh Astrobodiy, Abdurahmon Jomiy, Shayxim Suhayliy, Abdullo Hotifiy, Maktabiy Sheroziy, Badriddin Hiloliy, Abdibek Sheroziy, N., Fuzuliy, Shohin, Mulham Buxoriy, Andalib, Nizoriy kabi ko‘plab Sharq shoirlari dostonlar bitganlar. Tadqiqotchilarning hisob-kitoblariga ko‘ra, bu mavzuda turli tillarda 136 ta asar yaratilgan.

N.ning “L.M.” dostoni 38 bobdan iborat. Asosiy voqealar 10-bobdan boshlanib, 35-bobda tugaydi. Dastlabki 9 bob dostonga muqaddima va keyingi 3 bob xotimadir.

Bani Omir qabilasining badavlat va nufuzli boshlig‘i tirnoqqa zor bo‘lib, qarigan chog‘ida Xudo unga farzand beradi. Yaxshi niyatlar b-n unga Qays deb shavkatli bobosining otini qo‘yadilar. Tiyrak bolaning yoshi 4–5 orasida ekanida unga barcha ilmlardan bahramand donishmand ustoz qidirib qoladilar. Bunday har jihatdan yetuk ustod Hay qabilasida bor edi. U Hay qabilasining boshlig‘ining qizi tahsil oladigan maktabda dars berardi. Qaysni o‘sha maktabga beradilar. Bu paytda Layli kasalligi tufayli maktabga qatnamasdi. Qays bilimga chanqoqligi va o‘tkir zehni b-n tezda muallimning nazariga tushadi, o‘quvchilarning hayratiga sazovor bo‘ladi. Boshqalar 5–10 kunda oladigan saboqni u bir kunda xatm qilardi. Shu tariqa:

Oz vaqtda ayladi zamona,
Oni bori ilm aro yagona.

Bahor kunlaridan birida Layli tuzalib, maktabga keladi. Hamma xursand, uning sharafiga o‘qituvchi o‘quvchilarni bir kunga darsdan ozod qiladi. Lekin Qays Layliga ko‘zi tushiboq hushini yo‘qotadi, yerga qulamaslik uchun zo‘rg‘a o‘zini qo‘lga oladi. Bu hol ziyrak qizning nazaridan chetda qolmaydi. Ayni paytda, uning o‘zi ham ko‘nglida bir o‘zgarish bo‘lganini sezadi.

Qolmadi havosida qarori,
Shavq o‘tig‘a tushti joni zori.

Layli barchani bog‘ sayriga taklif etadi. Boshqalardan ajralib qolmaslik uchun Qays ham chor-nochor ularga ergashadi. Lekin unga bu gulgasht tatimaydi. Qalin o‘sgan gulbutalar b-n to‘rt tomoni to‘silgan, hech kimning ko‘zi nari bir pana joyga kirib, ko‘z yoshi to‘kib o‘tiradi. Bolalar ichida Qaysning yo‘qligini payqagan Layli ularning ko‘zini shamg‘alat qilib, Qays turgan yerga keladi: “Senga nima bo‘ldi? Nima u-n boshqalardek o‘ynab-kulmaysan?

Seni bunchalik qayg‘uga solgan kim?” – deb so‘raydi. Shunda Majnun: “O‘zing bir nazarda meni shu ahvolga solib, yana nima bo‘ldi deb so‘raganing nimasi?” – deydi-yu, hushidan ketadi. Layli uning boshini quchoqlab, yig‘lab o‘tirganida uni ikki kanizi izlab keladi. Sirdan voqif bo‘lishgach, ulardan biri: “Gap-so‘z ko‘paymasligi u-n yigitni bizga topshirib, o‘zing uyingga jo‘na”, – deya maslahat beradi. Keyin kanizlar Qaysning odamini topib, bechora oshiqni unga topshirishadi.

Qays yarim tunda uyg‘onadi. Laylini izlab har yoqqa chopadi. Gul, g‘uncha, binafsha, sarv, maysalardan yorini so‘roqlaydi, uning izi qolgan tuproqni o‘padi. Bulbul b-n roz aytishib, yana hushidan ketadi. Nochor qolgan nigohbonlar bu xabarni qabilaga yetkazadilar. Butun qabila xavotir olib, Majnunni izlab chiqadi – uni kajavaga solib olib ketadilar.

Ertasi kuni Qays hushiga kelib, o‘z holatidan xijolat bo‘ladi. Lekin tunda yana ishq o‘ti zo‘rayib, o‘zini tutolmaydi – Layli qabilasi tomon yo‘l oladi. O‘z dardini qabila yonida yongan olovga, qabila itiga to‘kib soladi. Qays ishqida bedor Layli oshig‘ining o‘tli ohini eshitib, uydan chiqadi. Bir-birini ko‘rgan oshiq-ma’shuq hushdan ketishadi. Sirdan xabardor doya Laylini keltirib, o‘rniga yotqizadi. Gap-so‘z ko‘paymasin, deb Majnunni ham qabiladan uzoqroqqa sudrab olib borib tashlaydi. Ertalab Qaysni uydan topmay, izini olib keladilar va qumga ko‘milib yotgan holda topadilar. Shu-shu Qays har kecha odamlar uxlashi b-n Layli qabilasi tomon keladigan odat chiqaradi. Nasihatlar samara bermaydi, tabiblar uning dardiga ojiz qolishadi. Odamlar uni Majnun deb atay boshlashadi. U tuni b-n Layli qabilasi atrofida aylanib, tong otgach sahroga chiqib ketadi. Bu holdan xabar topgan Laylining otasi g‘azabga minadi, Qaysning otasidan o‘g‘lini eplolmasa, bandga solishini so‘raydi. Majnun bandni ham sindirib, dashtga chiqib ketadi.

Bu orada badavlat Ibn Salom ko‘chada Laylini ko‘rib, yoqtirib qoladi. Behisob sovg‘a-salomlar b-n sovchi yuboradi. O‘rtada non ushatiladi. Buni Laylidan sir tutar edilar. Lekin bir xotin sirni ochib qo‘yadi. Layli buni eshitib, kasal bo‘lib qoladi.

Majnuning otasi pand-nasihatlar kor qilmagan, tabiblar dardiga ojiz qolgan o‘g‘li u-n so‘nggi chorani qo‘llaydi – uni Ka’ba tavofiga olib boradi. Lekin Majnun Allohdan dardiga darmon so‘rash o‘rniga bu ishq dardini yanada sarbaland qilishini tilaydi:

Demonki, meni tarabg‘a xos et,
Yoxud g‘ami ishqdin xalos et!

Dermenki, manga bu o‘tni har dam
Afzun qil-u, qilma zarraye kam!..

Ko‘nglum g‘am ila to‘q ayla, yo Rab!
Ishq ichra meni yo‘q ayla, yo Rab!

Layli ishqin tanimda jon qil,
Layli shavqin ragimda qon qil.

Dardini najotim et, ilohi,
Yodini hayotim et, ilohi!

Otaning butun umidlari yo‘qqa chiqadi. Majnun butunlay sahroni vatan, vahshiylarni do‘st tutadi. O‘z himmati b-n Arab qabilalari orasida mashhur bo‘lgan Navfal ovga chiqqanida, Majnunni ko‘rib, uning siridan voqif bo‘ladi va unga yordam berishga ahd qiladi. Dastlab Laylini Majnunga berishini so‘rab, Laylining otasiga maktub yozadi. Rad javobini olgach, unga qarshi urush ochadi. Lekin basharti yengilguday bo‘lsa, Laylining otasi qizini o‘ldirmoqchi bo‘lganini eshitib, jangni to‘xtatadi. So‘zining ustidan chiqolmagan Navfal Majnunga o‘z qizini taklif etadi. Lekin nikoh kechasi qizning sevgani borligi ma’lum bo‘lgach, Majnun ularga baxt tilab, yana dashtga chiqib ketadi. Barcha sirdan xabardor Navfal bu taqdirning ishi ekanini aytib, Qaysning qarindoshlaridan uzr so‘raydi.

U yoqda Layli b-n Ibn Salomning to‘yi bo‘lib o‘tadi. Bazmda ko‘p ichib qo‘ygan kuyov-

ning quyanchiq kasali tutib qoladi. Odamlar u b-n o‘ralashib qolganidan foydalangan Layli ham uydan chiqadi. Ikki oshiq uchrashadilar. Shundan keyin Majnun Najd tog‘iga chiqib ketadi. Ota-onasi yolg‘iz jigarbandlarining hajrida o‘lib ketishadi. Ularning qabrini ziyorat qilishga kelgan Majnun sevgilisining ham o‘lim to‘shagida yotganini eshitadi. U kirib borganida, Layli onasiga vasiyati qilib, jon taslim etgan edi. Tirikligida bir-biriga yetolmagan oshiq-ma’shuqni o‘lgach bir qabrga qo‘yishadi.

Avvalo, o‘tgan asrda “L.M.” syujet yo‘nalishi – ko‘rinib turgan zohiriy ma’nosiga ko‘ra talqin qilindi. Ikkinchidan, unga tayyor qoliplar asosida yondashilib, o‘tmishni qoralash u-n foydalanildi. Emishki, eski tuzumlar insonni baxtli yashashga qo‘ymaydi. Uchinchidan, qaror topgan an’anaga ko‘ra, Layli boyning, Qays kambag‘alning qizi qilib olindi (Ba’zi insofli olimlar Laylining otasi katta, Majnunning otasi kichik qabilaning boshlig‘i deyishdi). Dostonning asosida ijtimoiy tengsizlik yotishi, Laylining otasi o‘zidan past tabaqadan bo‘lganligi u-n Majnunga qizini bermaganligi keng targ‘ib qilindi. To‘rtinchidan, Laylining taqdiri butunlay o‘rta asr sharoitida ayollarning huquqsizligi b-n bog‘lab talqin qilindi. Beshinchidan, sun’iy ravishda asar personajlari ijobiy va salbiy qahramonlarga ajratildi. Aytaylik, Laylining otasi mushtumzo‘r, feodal istibdodining tipik namoyandasi, Majnunning otasi esa fuqaroparast emish. Oltinchidan, ikki yoshning baxtsiz sevgisi tasviri vositasida N. inson huquqlari toptalgan muhitga, qoloq urf-odatlarga qarshi isyon qilgan emish va h.k.

Shu tariqa tadqiqotchilar dostonni baholashda N. fikrlari, asar matnidan kelib chiqish o‘rniga, o‘zlariga ma’lum tayyor andozalardan foydalanganlar. Chunki dostonda ushbu talqinlarga asos beradigan biror-bir ishora uchramaydi.

Avvalo, Laylining otasi Hay qabilasining boshlig‘i bo‘lsa, Qaysning otasi Bani Omir qabilasining rahnamosi. Boylik va nufuzda u Laylining otasidan ortiq Nizomiy dostonida ham u shunday tasvirlangan. Jomiy va Fuzuliy ham uning boyligi cheksiz, mavqeyi yuksakligini yozishgan.

Ikkinchidan, Laylining otasi qizini Majnunga uning past tabaqadan ekanligi u-n emas, balki aynan telbaligi, el ichida gap-so‘z bo‘lganligidan or etib bermaydi. Bo‘lmasa, uning o‘zi Majnunni juda hurmat qilgan, uning bir qiz ishqida devona bo‘lganligini eshitib, hatto ota-onasiga rahmi keladi:

Ta’rifida ko‘p o‘tar edi so‘z,
Go‘yoki anga tegurdilar ko‘z.

Bas qobil edi-yu, dilpisand ul,
Ozodavash-u niyozmand ul.

Aqli komil-u kalomi ma’qul,
Bor erdi manga ham asru maqbul.

Ne erkin aning atosi holi,
Bechora anosining maloli?

Lekin Qays o‘z qizining ishqida jinni bo‘lganligini eshitib, jahli chiqadi, ori keladi va uning otasiga po‘pisa qilib, chopar jo‘natadi: “O‘g‘lingni eplasang epla, bo‘lmasa bog‘lab qo‘y!” Majnunning otasi undan qo‘rqqanidan emas, balki ayb o‘g‘lida ekanligi – nufuzli bir oilaning qizini el ichida gap-so‘zga qo‘yganligi u-n Qaysning oyog‘iga zanjir soladi.

“Kitob ush-she’r vash-shuaro”da Laylining otasi qizini Majnunga bermaslik u-n ont ichib qo‘yganligi sababli ham bu nikohga rozi bo‘lmaganligi aytiladi. “Devoni Majnun”da esa Layli va Majnun xalq orasida gap-so‘z bo‘lganlari u-n ham qizning otasi rad javobini bergan deyiladi.

Ma’lum bo‘ladiki, dostonning dunyoviy talqini ham asar matniga tayangan holda olib borilmagan va shuning u-n u mukammal emas.

N.ning yuksak mahorati mevasi bo‘lmish mazkur dostonda ham zohiriy va botiniy ma’nolar – hayotiy va tasavvufiy mazmun, islomiy qarashlar va tasavvuf falsafasi, realistik tasvir va badiiy to‘qima mohirlik b-n bir-biriga omuxta qi-

lib yuborilgan. Shoir bu ikki doston orqali Haqqa yetishning ikki yo‘lini badiiy talqin etgan: “Farhod va Shirin”da – tariqat, “Layli va Majnun”da – ishq. Chunki “Farhod va Shirin”da “pok” so‘ziga urg‘u berilsa, “Layli va Majnun”da “o‘t” so‘zi g‘oyaviy-badiiy vazifa tashiydi: poklik – tariqat, o‘t – ishq yo‘li ekanligi ma’lum. Chunki tariqatda – poklik darajasi, ishqda – ko‘ngildagi o‘tning quvvati solikning kamolotga yetish yo‘lidagi asosiy vosita hisoblanadi.

Dostonning asosiy voqealari 9-bobdan ishq dashtining tasviri b-n boshlanadi. Tasavvufda dasht – ishq bepoyonligining ramzi – uning oxiriga hech kim yetmagan va undan hech kim qaytib kelmagan. Dashtda qalashib yotgan inson suyaklari shundan dalolat beradi. Qalbiga ilohiy ishq uchquni tushgan kundan boshlab Majnunning ham manzil-makoni – dasht. Dashtga chiqib ketishi – uning ishq olamiga kirishiga ishora. Buni shoirning o‘zi ham ta’kidlaydi: “Keldi bu dasht – ishq dashti”.

Dostonni o‘qiy boshlaymiz: Majnunning zuvalasi g‘am tuprog‘ining suviga qorilgan. Ishq o‘ti b-n yeli uning qismati qilib belgilangan. U tug‘ilganda ko‘zini balo ochadi, boshini firoq silaydi, og‘zini dard yuvadi, ko‘nglini ishq manzil aylaydi. N.ning bu ishoralari bejiz emas. Qaysning tug‘ilishi haqidagi bobning sarlavhasida yoq “qon yutmoqdin xo‘rish va ishq doyasidin parvarish topqoni” deyiladi. Majnun ichgan sutning qonga aylanishi – ilohiy bir xilqat sifatida yaratilgan bo‘lishiga qarmay, uning bu dunyoga bog‘liqligi, dunyoviy ne’matlardan tanovul qilishga majburligi b-n izohlanadi.

U “ishq ahliga qiblayi murod” bo‘lib dunyoga keladi. Chunki uning “Ishq farzandi” ekanligi chaqaloqligidayoq ayon edi. Qays hali beshikda ekan, o‘t ko‘rsa, uni ishq o‘ti tasavvur qiladi, go‘dakni g‘am-u dard parvarish etadi, u beshikda fig‘on cheksa, bu darddan nishona ko‘rinardi.

Aslida N. dastlabki 9 bob davomida o‘z dostonining ilohiy tasviriga bag‘ishlanganiga o‘quvchini tayyorlab boradi, keyin ham butun asar mobaynida bunga ishoralar qiladi va ishq ta’rifiga bag‘ishlangan 36-bobda bu boradagi fikrlarini xulosalaydi. Chunonchi, muqaddimada Alloh bu dunyoda Layli ko‘rinishida jilva qiladi va barchani Majnun kabi o‘ziga maftun etadi, deyilishining o‘ziyoq uning oddiy sevgi tasviriga bag‘ishlanmaganligini yaqqol ko‘rsatadi:

Ey har sorikim qilib tajalli,
Ul mazhar o‘lub jahonda Layli.

Ey oniki, Layli aylab otin,
Majnun qilmoq qilib sifotin.

Jannatdagi bug‘doy donasi bir odamni – Odam Atoni yo‘ldan urgan bo‘lsa, Laylining yuzidagi dona – xoli butun olamni sayd etadi, mazmunidagi quyidagi esa Laylining ilohiy ishq timsoli ekanligiga ishora:

Ul donag‘a sayd o‘lub bir odam,
Bu donag‘a borcha ahli olam.

Alloh bandasini o‘ziga jalb etish uchun nimanidir vosita qiladi: Ibrohim Adhamni jayron orqali ovlagani kabi Farhodni – Shirin, Majnunni – Layli vositasida o‘ziga oshiq ayladi.

Doston boshdan-oyoq ramz-u timsollarga ko‘milgan bo‘lib, uning asosida Alloh va inson munosabati yotadi. N.ning o‘zi Layli va Majnun sevgisi haqidagi afsonani – qobiq, tasavvufni – mazmun qilib olganini asar oxirida ta’kidlaydi:

Yozmoqta bu ishqi jovidona,
Maqsudum emas edi fasona.

Mazmunig‘a bo‘ldi ruh mayli,
Afsona edi aning tufayli.

Lekin chu raqamg‘a keldi mazmun,
Afsona anga libosi mavzun.

Arab xalqi orasida keng tarqalgan Layli va Majnun haqidagi ishqiy afsona tasavvuf tufayli mashhur bo‘ldi. Chunki oshiq-ma’shuqlarning

tiriklikda bir-biriga yetisholmaganliklari to‘g‘risidagi mazkur qayg‘uli qissa Allohning vasliga bu dunyoda erishib bo‘lmasligi xususidagi so‘fiyona talqinga juda mos kelardi. Yirik nemis olimasi A.Shimmelning yozishicha, “Shu sababdan bu qissa so‘fiylarga ilohiy sevgili bag‘riga butunlay singib ketish timsoli bo‘lib xizmat qiladi”. N. ham undan ilohiy ishqni tasvirlash u-n bir vosita sifatida foydalangan.

Aslida hammasining ibtidosi – majoziy ishq. Ana shu majoziy ishq oshiq ishqining darajasiga qarab nihoyasi shar’iy nikoh bo‘lgan oddiy avom sevgisi kabi qolib ketishi ham, pok ishqqa qadar yuksalishi ham va undan-da o‘tib, ilohiy ishq maqomiga yetishi ham mumkin. Majnunning muhabbati ilohiy ishq edi. Chunki uning o‘zi ilohiy marhamat sifatida dunyoga keladi, ya’ni u Xudovandi karim tomonidan tanlangan xos kishi.

Majnun ishqini majoziy deb bo‘lmaydi, chunki bunday tuyg‘u balog‘at yoshida boshlanadi. Faqat pok, ya’ni ishq b-n cheklab ham imkonsiz ediki, u ilohiy bir ishq timsoli bo‘lib tug‘ilgan edi va pirovard-natijada uning Layliga bo‘lgan sevgisi ilohiy ishqqa aylanib ketadi. Buni N.ning o‘zi ham ta’kidlaydi:

Majnung‘a biri bo‘lib musallam,
Bahra topti ikkinchidin ham.

“L.M.” – insonning o‘z Yaratuvchisidan ayrilgani mavzuidagi doston. Shoirning o‘z asarini “Firoqnoma”, “Nomayi dard” (“Dard maktubi”) deb atashi shundan.

Layli – ilohiy husn, Majnun – bu husnga oshiqlik timsoli.

Majnun yo‘li – ilohiy ishq yo‘li. Uning ranju mashaqqatlari – Ilohni topish qiyinchiliklaridir.

Ad.: *Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Комилов Н. Тасаввуф. – Т., 1996; Ҳаққул И. Тасаввуф ва шеърият. – Т., 1991; Очилов Э. Мажнун – Ҳақ ошиғи // Навоийга армуғон. – Т., 2004; Юсупова Д. Ўзбек мумтоз ва миллий уйғониш адабиёти (Алишер Навоий даври). – Т., 2016; Сирожиддинов Ш., Юсупова Д., Давлатов О. Навоийшунослик. – Т., 2018; Алишер Навоий: Қомусий луғат. 1–2-жилдлар. – Т., 2016.*

E.O., M.A.

“**LAYLI VA MAJNUN” KONKORDANSI** – asarda ishlatilgan so‘zlar, ularning necha marta, qaysi sahifalarda uchrashini ko‘rsatuvchi lug‘at. Texnikaning rivojlanishi ijtimoiy fanlarga ham ijobiy ta’sir ko‘rsata boshladi. Buni, ayniqsa, lug‘atchilikda yaqqol ko‘rish mumkin. Ilgari biror asarda ishlatilgan so‘zlar lug‘atini tuzish uchun oylar, agar asar hajman katta bo‘lsa, yillar ketardi. Endi kompyuter texnologiyasining rivojlanishi natijasida bu ishlarni tezlatish imkoniyati tug‘ildi. Kompyuter vositasida tuzilgan lug‘atlarning bir qismi fanda konkordans deb atala boshlandi. Unda asarda ishlatilgan so‘zlar alifbo tartibida berilganida, ular necha marta, qanday shakllarda, qaysi sahifada uchrashligi aniq ko‘rsatiladi. Bu esa tadqiqotchi, talaba, o‘qituvchi va boshqalarga tezkor ma’lumot beradi. Demak, vaqt tejaladi. Bu bugungi shiddatkor zamonda juda muhim. Bundan tashqari korkordans yozuvchi yoki shoirni so‘z qo‘llash mahoratini, uslubini, qaysi sheva vakili ekanligi kabi masalalarni aniqlashga yordam beradi. Prof.lar Abdurahim Mannonov, Ahmadjon Quronbekov, Muhammadjon Imomnazarov 2012-y. “X.” dostonlari konkordansi bo‘yicha ish olib borib, “L.M.” dostoni konkordansini tuzib nashr etdilar. Olimlarning hisob-kitobi bo‘yicha:

Ey yaxshi oting bila sarog‘az,
Anjomig‘akim yetar har og‘oz, –

deb boshlanib, “Gunohlarim kechirilsin, omin, Tangri tilagimga yetkazsin, omin” ma’nosidagi:

Isyonima avf bo‘lg‘ay omin,
Yo Rabki, bu nav’ bo‘lg‘ay omin, –

bayti bilan tugovchi 3669 baytli “L.M.”da jam’i 9994 ta so‘z va ibora ishlatilgan. Ular 28 harfga

quyidagicha bo‘lingan: A-1045, B-776, Ch-188, D-339, E-220, F-165, G-199, G‘-112, H-350, I-291, J-258, K-535, L-97, M-692, N-389, O‘-224, P-155, Q-599, R-206, S-675, Sh-157, T-812, U-188, V-136 , X-320, Ya(YE,Y,Yo)-547, Z-192, J(forsiy)-2. Avvalo, shuni aytish kerakki, ushbu doston “X.” tarkibiga kiruvchi boshqa asarlardan o‘zbekcha so‘zlar ishlatilishi jihatdan tubdan farq qiladi. Agar “X.” tarkibidagi boshqa dostonlarda arabiy va forsiy so‘z va birikmalar ko‘proq ishlatilsa, ushbu dostonda o‘zbeklar hayotiga oidlari ko‘proq uchraydi. Chunonchi, dostonda forscha Xudo so‘zi bir marta 30 bobning 14 baytida ishlatilgan:

Andoqki tilab Xudo rizosin,
Andin so‘ng ota-ona rizosin.

O‘zbekcha Tangri so‘zi 9 marta asl holatda, 4 marta qo‘shimchalar bilan ishlatilgan: Tengridin, Tengriga (3 marta), Tengriga o‘q, Tengrini:

Alloh-Alloh bu ne so‘z o‘lg‘ay,
Ul qavmga Tengri uzr qo‘lg‘ay.

Kim Tengridin erdi bo‘yla taqdir,
Ne kim taqdir erur, ne tadbir.

Ka’bam bo‘lmish mening har obim,
Tengriga ne bo‘lg‘usi javobim.

Quyida Layli va Majnun uchrashuviga bag‘ishlangan lavhada shoir, asosan, o‘zbek so‘zlaridan foydalanadi:

O‘rgamchi shaboqqa julni tirmab,
Tumshug‘ini rishta birla chirmab.

Xuffoshki sayri davr topib,
Olamg‘a qanoti parda yopib.

Yuziga tushub bo‘ri qulog‘i,
Andin yopilib ko‘zi charog‘i.

Nogoh uku chekmagay debon un,
Tumshug‘i etib ko‘zini chobun.

Qo‘ychi itin uyqu devi bosib,
Qo‘ylar yungi rishtasidin osib.

Ushbu konkordans N. ijodi bo‘yicha tadqiqotchilarga, umuman, shoir ijodi bilan qiziquvchilarga muhim ma’lumotlar beradi:

1. Tadqiqotda har bir so‘z va qo‘shimchaning qaysi bob va baytda necha marta ishlatilganligi aniq ko‘rsatilgan: kishi 22 marta, topib – 41, qabila – 28, kofir – 8, emdi – 29, to‘rt – 14, sayr – 15, etib – 83, etti – 112, jon – 66, ko‘p – 62, manga – 64, qaroqchi – 1 va boshqalar. Ki qo‘shimchasi 686, kim 562, marta ishlatilgan. Har bog‘lovchisi 334, ham 330 marta uchraydi. Shoir olmoshlardan unumli foydalangan: u 453, ul 659, bu 669 marta ishlatilgan. Ularni boshqa so‘zlarga nisbatan ko‘p ishlatilishi ayrim joylarda vazn va qofiya talabi b-n bog‘liqligini ko‘rish mumkin. N. doston vazni yoki qofiyasidagi saktalikdan qutulish u-n ulardan unumli foydalangan. Chunonchi quyidagi baytda, bizningcha, ul olmoshi vazndagi saktalikdan qutulish u-n ishlatilgan:

Bo‘lmasa jahondin ortiq ul pok,
Bas bo‘lmas edi matofi aflok.

Kim so‘zi haqida ham shunday fikr aytish mumkin:

Sog‘indi qachon nazora qildi,
Kim, charx uyi boshiga yiqildi.

2. Shoir qaytariqdan qutulish u-n so‘zlarni turli shakllarda ishlatadi. M-n, kuchsiz, ojiz, kasalmand ko‘p ma’noli notavon so‘zi 14 shaklda uchraydi: notavondin, notavondir, notavonga, notavoni, notavonin, notavoning, notavonlar, notavonlig‘, notavonlig‘imni, notavonliq, notavonmen, notavonni, notavonroq, notavonsen. Xuddi shunday holni boshqa so‘zlar misolida ham ko‘rish mumkin. Adabiyotshunos To‘xta-

sin Jalolov yozganidek, “Sevgi alamlarida kuygan, hajr olovlarida yongan oshiqlarga bag‘ishlangan”, ushbu dostonda anduh, g‘am-anduh ma’nolaridagi so‘zlar ko‘p uchraydi: firoq – 10, qayg‘u – 7, motam – 14, hijron – 12, hajr – 30, g‘am – 90, dard – 61, mehnat – 19, za’f – 21, zaif – 10.

Shoir ularni ham har birini turli shakllarda ishlatadi. Chunonchi, motam so‘zi quyidagi shakllarda uchraydi: motamangez, motamga, motami, motamim, motamingdin, motamivor, motamzada, motamzadalar, motamzadaliqqa.

Shoir dostonda so‘z variantlaridan unumli foydalangan. Edi 189 marta uchragani holda:

Chun yor edi baxti jovidona,
Tortar edi meni bexudona.

Erdi 250 marta ishlatilgan:

Jayb-u etagimni ayladim qon,
Yo‘q erdi ko‘tarmak o‘zga imon.

Xuddi, shuningdek, bila 184 marta, ila 155 marta qo‘llangan. Bo‘lsa va o‘lsa so‘zlari 61 martadan ishlatilgan. Konkordansda chun 220 marta, chu 128 marta uchrashi qayd qilingan. Tadqiqotda doston matni lotin yozuvida aruz vazniga tushirilgan holda berilgan. Bu konkordansning ahamiyatini yanada oshirgan.

Ushbu dostonda ishlatilgan so‘zlar miqdori Sharq adabiyotida mashhuri jahon bo‘lgan Hofiz Sheroziy devonidan ko‘p. Agar N. faqat bir “L.M.”da 10.000 yaqin so‘z va ibora ishlatgan bo‘lsa, Hofiz Sheroziy butun umri davomida yaratgan devonida 7227 ta so‘z va ibora qo‘llagan. Shu misolning o‘ziyoq buyuk shoirimiz Sharq adabiyotida o‘ziga xos fenomen ekanligini ko‘rsatadi.

Ushbu konkordans bo‘yicha ikkita mulohaza bor:

1. Omonimlarni alohida-alohida berishni o‘ylab ko‘rish lozim. M-n, ko‘k so‘zi tadqiqotda 21 marta uchrashligi qayd qilingan. Ammo ulardan qay biri osmon, qaysinisi rang, qay biri o‘simlik ekanligini aniqlash qiyin.

2. Kirill harfidagi ye va yo harflari bilan yoziluvchi so‘zlar lotinda bir y b-n berilgan. Buni quyidagi baytda yaqqol ko‘rish mumkin:

Chun yeti qabilaga yobondin
Yod etmadi qo‘y bila cho‘pondin.

Ushbu baytdagi yetti so‘zi kirill harfida yetti, etmadi so‘zi kirill harfida etmadi shaklida yozilganligini hisobga olsak, tuzuvchilar, y harfi bilan boshlanuvchi so‘zlarni ya, yo, yi kabi guruhlarga ajratsa, to‘g‘riroq bo‘lardi, deb o‘ylaymiz.

Ad.: *Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011.*

E.U.

“LAYLI VA MAJNUN”NING RUS TILIGA TARJIMASI – Semen Lipkin tomonidan o‘girilgan. Ushbu asar tarjimasi 1939–1941-yy. davomida amalga oshirgan va u birinchi marta 1943-y.da nashr etilgan.

N.ning boshqa dostonlari singari “L.M.” ham katta qisqartirishlar b-n o‘girilgan. Natijada, asliyatda o‘ttiz sakkiz bobdan iborat doston tarjimada yigirma olti bobga yetgan, ya’ni jami o‘n ikki bob qisqartirilgan. Bular hamd, munojot, me’roj, so‘z vasfi, Jomiy madhi, Sulton Husayn Boyqaro madhi, Sulton Badiuzzamon madhi, bir mahobatli tun haqidagi boblardir. Tarjima Qaysning tug‘ilishi haqidagi o‘ninchi bobdan boshlanadi. Ko‘rinadiki, tarjimon dostonning syujetiga bevosita aloqador boblarni tarjima qilgan.

Asardagi nasriy sarlavhalar o‘girilmagan. Ularning o‘rniga bob mazmunini qisqa ifodalovchi jumlalar berilgan. M-n, XI bobdagi nasriy sarlavha asliyatda quyidagicha: “Qaysning xirad maktabida ulum avroqin evurgoni va ishq tundbodi yetib, ul avroqni sovurg‘oni, ya’ni Layli xusni gulshanidin za’f xazoni kanora qilib, sihhat bahori nasimidin latofat gullari ochilib, maqtab azmi qilg‘oni va ul gullardin Qays ko‘ngli oyog‘-

ig‘a oshiqlik tikanlari sanchilg‘oni”. Tarjimada quyidagicha: “О том как Кайс начал учиться в школе, увидел красоту Лейли и занозы любви вонзились в его сердце”.

Ma’lumki, N. dostonlaridagi nasriy sarlavhalar katta badiiyatga ega, ayni paytda ular, umuman, asar badiyatini ta’minlashga ham xizmat qiladi. Bundan tashqari mazkur sarlavhalar bobning g‘oyaviy-badiiy mazmunini anglashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, ularning o‘girilmagani yoki ular o‘rniga qisqacha sarlavhalar qo‘yilishi tarjimada dostonning butun latofati, go‘zalligi va teran mazmunligini to‘liq yetkazib berilishiga monelik qiladi. Bu so‘zlar “L.M.” dostoni tarjimasiga ham to‘liq tegishlidir.

Tarjimada ayrim o‘rinlarda asliyatdan chekinish yoki uning mazmunini to‘g‘ri aks ettirmaslik holatlari uchraydi. M-n, shunday holatni XI bob (tarjimada II bob) tarjimasida ko‘rish mumkin. Asliyatda Laylining otasi sha’niga bitilgan quyidagi so‘zlar tarjimada maktab domlasiga tegishli bo‘lib qolgan:

Был гнев его горячим, жестким был,
В его руках и камень воском был.

Shu b-n birga anchagina muvaffaqiyatli chiqqan o‘rinlar ham bor. Tarjimon asarning pafosini, xususan, unga xos tragik holatini saqlab, o‘quvchiga yetkazib berishga intilgan va ko‘p o‘rinlarda bunga erishgan. Lekin doston nihoyasidagi ishq haqidagi:

Ey ishq, g‘arib kimyosen,
Bal oinayi jahonnamosen, –

deb boshlanuvchi go‘zal bobning hamda asarning tragik pafosini ta’kidlovchi 38-bobning tushirib qoldirilgani undagi foje’ ulug‘vorligining butunicha tarjimada aks ettirilishida ma’lum bir kemtiklikni yuzaga keltirgan.

Rus tilidagi tarjimaning yutuqlaridan biri shundaki, uning ravon tilda, asliyat vazniga yaqin vaznda o‘girilganini ta’kidlash mumkin.

Ad.: *Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. ТАТ. 10 жилдлик, 7- жилд, – Т., 2011; Алишер Навои. Лейли и Меджнун. Собрание сочинений в десяти томах. Т. 4. – Т., 1968.*

Q.E.

“LAMA’OT” (“Shu’lalar”) – Shayx Faxriddin Ibrohim ibn Buzurgmehr ibn Abdulg‘affor Javoliqiy Hamadoniyning (1213–1289) Shayx Ahmad G‘azzoliyning “As-savoneh fi maoniy ul-ishq” (“Ishq ma’nolari va voqealari”) hamda Shayx Muhyiddin ibn Arabiyning “Fusus al-hikam” (“Hikmatlar gavhari”) asari ta’sirida yozilgan asari. N. “N.M.” tazkirasida muallif bu asarini Rumda Sadriddin Ko‘niyaviy xizmatida yurganida bitgani va bu b-n Shayxning nazariga tushgani haqida ma’lumot beradi. Tariqatning asosiy maqomlari tasviriga bag‘ishlangan bu asar 28 lama’ga bo‘lingan. Ularning har birida ishq jarayoni va oshiq holatining muayyan ko‘rinishi aks etgan bo‘lib, asar ilohiy jamol oshig‘ining mahbuba visoliga yetishi b-n yakunlanadi. Bu maqomlar badiiy tasvir vositalari orqali go‘zal va ta’sirchan shaklda bayon qilinadi. Fikrining tasdig‘i sifatida muallif ko‘plab nazmiy parchalardan mahorat b-n foydalangan. Asarning tili og‘ir, uslubi murakkab, ramzlarga boy bo‘lgani uchun unga ko‘plab sharhlar yozilgan. Ular orasida eng mukammali Abdurahmon Jomiyning 1481- y.da N. iltimosi b-n yozilgan “Ashi’’at ul-Lama’ot” (“Yorqin shu’lalar”) sharhi hisoblanadi.

“L.” tasavvuf ta’limotining irfon falsafasi bosqichidagi birlamchi manbalardan biri sifatida XIII–XIV asrlarda katta ilmiy-falsafiy ahamiyatga ega bo‘lgan. Turk olimi U.Turar uni tasavvuf falsafasining asosiy manbalari qatorida keltiradi. Chunki u irfoniy adabiyotni bir pog‘ona yuqoriga ko‘targan edi.

N. ustozi Jomiy huzurida ko‘plab tasavvufiy asarlar qatori “L.”dan tahsil oladi. Jomiy “Savoneh” mutolaasidan ham ko‘ra uning sharhi bo‘lmish “L.”ni o‘qishdan ko‘proq zavq olishini aytadi. Saboq jarayonida: “Bu kitobni nodon va beandom tavrlig‘ va nohamvor ravishliq elning

ko‘proq mashg‘ulluq qilg‘oni xavos ahlida badnom qilg‘on ermishkim, ba’zi o‘qumas ermishlar. Bu jihatdin bu kitobning xo‘bluqlari yashurun qolg‘on ermish”, – deydi va o‘zining unga sharh bitishining sababini shu b-n izohlaydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамсат ул-мутаҳаййирин. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Аз “Ламаъот” // Дурдонаҳои наср. Ж. 2. – Д., 1989; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Холмўминов Ж. Жомий ва ваҳдат ул-вужуд таълимоти. – Т., 2008; Турар У. Тасаввуф тарихи. – Т., 1999.*

E.O.

LANGAR – **I** Yo‘lovchilar qo‘nib o‘tadigan, ularga xizmat ko‘rsatiladigan joy. Odatda, L.lar katta yo‘llarning bo‘ylarida joylashgan. Bu so‘z N. asarlarida ham uchraydi va yuqoridagi ma’noda qo‘llanadi. M-n, “M.N.”da Mavlono Sirriy haqida ma’lumot berarkan, uning bir L.i borligini va yo‘lovchilarga xizmat qilishini aytib o‘tadi: “Mavlono Sirriy – Mavlono Ali Ishxobning o‘g‘lidurkim, yuqori mazkur bo‘ldi. Abdolvash yigitdur. Holo Marvda langari bor, o‘tar-borur elga xizmat qilur”.

II Aziz-avliyolarning manzili yoki ularning mozori joylashgan yer. L.ning bu ma’nosiga misol sifatida Langari Bobo Xokiy, Langari Mir G‘iyos kabi joy nomlarini keltirish mumkin. Bobo Xokiy N.ga zamondosh bir valiy bo‘lib, Husayn Boyqaro Hirotni qo‘lga kiritish u-n otlanganda Bobo Xokiyni ziyorat qilgani manbalarda, shu jumladan, N. asarlarida qayd etilgan. Bu voqea haqida xabar bergan tarixchi Mirxond ham xabar beradi va Bobo Xokiyning manziliga nisbatan “L.” so‘zini qo‘llaydi: “So‘nggi kunning choshgohida Langari Bobo Xokiy bilan jo‘nadi… bir tog‘ g‘orida Tangri taolo amri bilan ibodat qilib o‘ltirgan Bobo Xokiy… xoqoni mansur muloqotiga chiqib, ul hazratning nazariga mansubdir”.

Xondamir “Makorim ul-axloq”da N. tomonidan obod qilingan yerlarni sanab o‘tar ekan, Shayx Muhyi mozorini ham tilga oladi va bunda “L.” atamasini qo‘llaydi.

III Musofirlarga, beva-bechoralarga taom beriladigan joy.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Т., 1967.*

Q.E.

LATIF Yunus – o‘zbek shoiri va adabiyotshunosi, jurnalist va pedagog (1910–1914). “Qizil O‘zbekiston” gazetasida adabiyot bo‘limi mudiri sifatida faoliyat ko‘rsatgan. Adabiy meros bo‘yicha ko‘pgina maqolalar e’lon qilgan L.Y. 20-yillarda yozgan maqolasida “...XV asrdagi adabiyot saroy adabiyoti bo‘lib, o‘sha vaqtdagi shoirlar feodal sinfining kuychilari edilar...” kabi xato fikrlarni ilgari surganda ham, 30-yillarning o‘rtasiga kelib, to‘g‘ri yo‘lga kira boshladi. Lotin alifbosida “M.Q.” (1939) asarining so‘zboshi va izohlari bilan ommaviy nashrini amalga oshirdi. Shuningdek, 1941-y. nasriy bayon va izohlar bilan e’lon qilingan “S.I.” dostonining ommaviy nashri ham L.Y. qalamiga mansub.

“Родоначальник узбекской литературы” to‘plamida (1940-y.) rus tilida “M.Q.” haqida “Возлюбленный сердец” maqolasi (85-91-betlar) chop etilgan. L.Y. “Navoiy va harbiy ta’lim” (1941-y., 9-fevral) hamda “Navoiyning urushga qarashi” (1940-y., 29-dekabr) kabi maqolalar muallifidir.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик. 8 жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик. 9 жилд. – Т., 2011; Родоначальник узбекской литературы. Сб. статей. – Т., 1940; Алишер Навоий. Маҳбуб ул- қулуб. – Т., 1939; Алишер Навоий. Садди Искандарий. – Т., 1941.*

Ab.H.

“LATOYIFNOMA” – N. “M.N.” tazkirasining 1521-22-y.da Faxriy Hiraviy tomoni-

dan fors tiliga o‘girilgan ilk tarjimasi. Mazkur asarning 1491-1492-yy.dagi 1-tahriri asos qilib olingan. Bu nusxada N. 385 ijodkor va tarixiy shaxs haqida ma’lumot bergandi. U asarni aynan o‘girganiga qaramay, muqaddimani qisqartirib, o‘rniga o‘zi so‘zboshi yozgan; muallif matnini goh yangi ma’lumotlar b-n to‘ldirgan bo‘lsa (M-n, Hiloliy, Kotibiy, Fig‘oniy, Osafiy, Ahliy Tursheziy, Mavlono Olim haqidagi fiqralar yangi ma’lumotlar hisobiga boyitilgan), goh ba’zi shoirlar haqidagi ma’lumotlarni qisqartirgan (M-n, Husayn Boyqaroga bag‘ishlangan 8-majlisni, deyarli, butun holicha qisqartirib, ijodidan namuna sifatida 2 ta turkiy bayt qoldiradi, xolos), o‘zidan bir bob (9-bob) ilova etib, u holda 189 nafar yangi shoir haqida ma’lumot keltiradi. Bu bob muqaddima, 9 latoyif (latifalar, ya’ni ajoyib hikoyalar) va xotimadan iborat. Uni tazkira ichidagi mustaqil tazkira deyish mumkin. Uning 1-qismi N.ga bag‘ishlangan. Ayni jihatdan, “L.”ni “M.N.”ning fors tilidagi bir qadar to‘ldirilgan nusxasi deyish mumkin. U XV asr 2-yarmi va XVI asr 1-yarmida Xuroson va Movarounnahrda taraqqiy etgan madaniy hayot, xususan, turkiy va forsiy adabiyotlar tarixini o‘rganishda muhim manbadir.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик. 9 жилд. – Т., 2011; Ғаниева С. Навоий насри нафосати. – Т., 2000; Воҳидов Р. “Мажолис ун-нафоис” таржималари. – Т., 1988.*

S.G‘., E.O.

LA’LIY (1467-y.da qatl qilingan) – Badaxshon shohining taxallusi. Ismi Shoh Sulton Muhammad. Qadimiy sulolaning vakili. 1370-y.da Amir Temur Amir Husayn ustidan g‘alaba qozonib, hokimiyatni to‘la o‘z qo‘liga olgan vaqtda, Badaxshonning o‘sha paytdagi shohi Shayx Muhammad unga bo‘ysungan. Shundan beri Badaxshon shohlari Amir Temur va temuriylarning vassallari hisoblangan. Lekin ular imkoniyat tug‘ilishi bilan mustaqillikka intilardilar. Bunday harakatlarga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida Sulton Abusaid mirzo Shoh Sulton Muhammadni, garchi u o‘zining qaynotasi bo‘lsa-da, hokimiyatdan mahrum qilgan va Hirotda tutqunlikda saqlagan. Badaxshon viloyatini esa o‘z o‘g‘li Abubakr mirzoga bergan. Bu mirzo Shoh Sulton Muhammadning qizidan tug‘ilgandi. O‘sha vaqtda badaxshonliklar isyon ko‘targanlar. Garchi isyonga shohning o‘g‘li rahbarlik qilgan, tutqunlikda yashayotgan Shoh Sulton Muhammadning bu ishga aloqasi bo‘lmasa-da, Abusaid mirzo uni qatl ettirgan.

N. L. b-n shaxsan tanish. Ular shayx Sadriddin Ravosiy huzuridagi majlislarda birga ishtirok etganlar. L. shayxdan dars olgan. Shayx Ravosiy podshoh oldida katta e’tiborga ega edi. Sulton Abusaid uning oldiga tez-tez kelib turgan. Shayx Ravosiydan dars olar ekan, shoh L. shu vositasida najot topishni umid qilgandir ehtimol. Lekin bunday bo‘lib chiqmaydi va shoh hayoti fojiali yakun topdi. N. “M.N.”da L. ning iqtidori va shaxsiyatiga yaxshi baho berib, “xushtab’ va musulmonvash kishi erdi” deb ta’riflaydi. Tazkirada shoh qalamiga mansub ushbu bayt keltirilgan:

Mo ba savdoyi tu tarki jon-u sar xohem kard,
Komi jon har dam zi la’lat pur shakar xohem kard.

Tarj.: Biz sening savdongda jonimiz va boshimizni tark etishni istaymiz. Jonimiz komini har dam la’lingdan purshakar qilish niyatidamiz.

O‘rta asr manbalarida L. mansub bo‘lgan Badaxshon shohlari sulolasining Iskandari Faylaqusga (Aleksandr Makedonskiyga) borib ulanishi aytiladi. N. bu fikrni keltirmaydi, lekin sulolaning qadimiy ekanligini, Badaxshon viloyati ming yillar davomida ular qo‘lida bo‘lganini qayd etadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. – Т., 2011.*

Q.E.

LAFF VA NASHR (ar. – yig‘ish va yoyish) – she’riy nutqning go‘zalligi va ta’sirchanligini ta’minlashga yo‘naltirilgan ma’naviy san’atlardan biri. Dastlabki misrada bir necha narsa-tushunchalar sanalib, ikkinchi misrada ularga tegishli, aloqador, bog‘liq narsa-tushunchalar nomi yoki ularning sifat va xususiyatlari keltiriladi. Avval narsa-tushunchalarni bir yerga yig‘ib, keyin ularga daxldor narsa-tushunchalar yoki sifatlarning bir yerda qatorlashtirib keltirilishi jihatidan mazkur san’at laff va nashr – yig‘ish va yoyish deb atalgan, ya’ni yig‘ilgan narsalarning o‘zlariga taalluqli sifat va xususiyatni olib yoyilishi. Boshqacha aytganda, L.N. bir-birini taqozo qiladigan so‘zlarning bir bayt yoki misrada yig‘ib va yoyib berilishidir. “Bunda sanalayotgan narsa-tushunchalar bir-biriga ochiq o‘xshatilmaydi, ularning bir-biri bilan bog‘liq yoki aloqador ekanligi ham ochiq aytilmaydi, ular o‘rtasidagi o‘xshashlik yoki muvofiqlikni idrok etib olish o‘quvchining o‘ziga havola qilinadi” (Z.Mamajonov).

Ba’zida buning aksi ham bo‘ladi, ya’ni sochma holda keltirilgan narsalar o‘ziga tegishli xususiyatiga ko‘ra bir yerda yig‘iladi. M-n:

Og‘zidin achchig‘ so‘z aytib, zohir
etsa zahri chashm,
Ayb emastur pista sho‘r-u tong
emas bodom talx.

Bu yerda pistaning og‘izga, bodomning ko‘zga nisbati bor.

L.N., asosan, bayt doirasida voqe bo‘lsa-da, ba’zan misra doirasida ham keladi. M-n:

Ne uchun bazmi visol ichinda
ichmay bodakim,
Ko‘zi-yu og‘zi bugun bodom-u
shakkardur manga.

Baytda bodom ko‘zning, shakar og‘izning sifati bo‘lib kelmoqda.

L.N.ning murattab (tartibli) va nomurattab (tartibsiz) ko‘rinishlari farqlanadi. Agar birinchi misrada narsa-tushunchalar qanday tartibda sanalgan bo‘lsa, ikkinchi misrada ularga tegishli narsa-tushunchalar shunday ketma-ketlikda keltirilsa, bu murattab L.N. deb ataladi. M-n:

Savdo-vu rishta zahmatig‘a uchradi ko‘ngul,
Zulf-u beling xayolida fikr-u daqiqdin.

Bu yerda “savdo”ning “zulf”ga, “rishta”ning “bel”ga nisbati bor.

Agar birinchi misrada sanalgan narsa-tushunchalarga aloqador sifat va xususiyatlar tartibi ikkinchi misrada buzilib, aralash berilsa, bu nomurattab L.N. bo‘ladi. Buni mushavvash (parishon, tarqoq) istilohi bilan ham yuritishadi. Bunga ba’zan vazn va qofiya talabi ham sabab bo‘ladi.

L.N. san’atini topishi va undan zavqlanishi uchun o‘quvchi Sharq mumtoz adabiyotining obrazlar olamini yaxshi bilishi kerak. An’anaviy timsol va tushunchalar hamda ularning qiyos doirasidan xabardor bo‘lmay turib bu san’atni aniqlash imkonsiz. Ko‘rinib turibdiki, bu san’at shoir uchun o‘ziga xos mahorat namoyishi bo‘lsa, o‘quvchi u-n bilimdonlik sinovidir. Shuning uchun ham V.Rahmonov nozik va murakkablikda L.N. lutf va iyhomdan qolishmasligini ta’kidlaydi.

Ad.: *Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъу-с-санойиъ (А.Рустамов тарж.). – Т., 1981; Зеҳний Т. Санъати сухан. – Д., 1976; Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Л., 1972; Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2010; Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға // “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2002, № 2.*

E.O.

LEBEDEV Nikolay Federovich (1901–1942) – turkolog, folklorshunos, tarjimon. Sankt-Peterburg davlat universiteti Sharq fakultetini tamomlagan (1931), tilshunoslik va xalq og‘zaki ijodidan dars bergan. O‘zbek, turkman xalq og‘zaki ijodi materiallarini to‘plagan, turkman xalq ertaklarini nashr qilgan. O‘zbek, qozoq,

turkman, tojik, fors, turk, nemis, ingliz, fransuz tillarini o‘zlashtiradi va o‘zbek, fors, turkman tilidagi asarlarni rus tiliga tarjima qiladi. 1941-y. 12-martda N. yubileyining 500 yilligini o‘tkazish va asarlarini nashr etishga qaratilgan tarixiy qaroriga ko‘ra, rus sharqshunoslari ham katta tayyorgarlikni boshlab yuboradilar. O‘zbek tilini qunt bilan o‘rgangan L.N.F. N. g‘azallaridan namunalar tarjima qiladi. 1941-y. 10-12-dekabr kunlari bo‘lib o‘tgan 500 yillik tantanalarda ilmiy ma’ruzalardan so‘ng tarjimon N. g‘azallaridan qilingan tarjimalarni maroq bilan o‘qiydi. “Navoiyshunoslar jasorati” kitobi muallifi M.Murodovning ma’lumot berishicha, L.N.F. tarjimalarni qamalda qolgan shaharda, Ermitaj yerto‘lalarida kechqurunlari bajaradi. O‘ta qiyin sharoitda, bemajol holatda N. g‘azallarini o‘girish va minbarda o‘qishga o‘zida kuch topadi (keyinchalik ochlikdan vafot etgan). L.N.F. “L.T.”, “S.S.” dostonidan parchalar, muxammas va g‘azallar tarjima qilgan. Jumladan, N.ning

Ohkim, volamen, ul sarvi xiromondin judo,
Ko‘zlarim giryondur ul gulbargi xandondin judo

deb boshlanuvchi taxmisini rus tilida o‘zbekona ohang va she’r mazmun-mohiyatini saqlagan holda ifoda etib bergan.

O‘n sakkiz ming olam oshubi agar
boshindadur,
Ne ajab chun sarvinozim o‘n sakkiz
yoshindadur”

g‘azalini

Уж так что же, коль в сердце милой
восемнадцать тысяч смут,
Милой только восемнадцать,
разве люди не поймут

tarzida o‘girgan. L.N.F. tarjimalarda g‘azal ohangi, mazmunni aniq, ravon yetkazib bergani u-n olimlar tomonidan yuqori baholangan. Mazkur tarjimalar keyinchalik S.N.Ivanov nashrga tayyorlagan “Alisher Navoiy” to‘plamidan ham o‘rin olgan.

Ad.: *Муродов М. Навоийшунослар жасорати. – Т., 1972; Николай Лебедев (Vekperevoda.Com)*

S.G‘.

LEVEND Ogoh Sirri – pedagog, adabiyot tarixchisi va tilshunos. 1894-y. Rodosda tavallud topgan. Boshlang‘ich ta’limni Edirnada tugallagach, mulkiy va harbiy maktablarda tahsil oldi (1909). Qabatosh va Qo‘nyo ilohiyot maktabida o‘qidi (1913). Istanbul dorilfununi Adabiyot fakultetini tugatdi (1919). Talabalik chog‘idayoq o‘qituvchilikni boshladi (1913). I jahon urushida harbiy xizmatga chaqirildi. 1917-y. Bandirmadagi harbiy qismda “Bolalar bog‘chasi” nomli maktab ochdi. Istanbulda xususiy Istiqlol litseyini tashkil etib, muallimlik va mudirlik lavozimida ishlagan (1922–1940). 1947-y. Shuningdek, G‘oziy Pedagogika institutida adabiyot muallimi sifatida ham faoliyat ko‘rsatgan, shu bilan birga 1945–1951 va 1961–1963-yy.da “Turk Ensiklopediyasi”da bosh kotib, Istanbul universitetining adabiyot fakultetida turk adabiyoti tarixidan saboq bergan (1953–1956). Turk Til qurumida bosh kotiblik (1951–1960) va raislik qilgan (1963-1966). U 1975-y.gacha Turk Tili tadqiqotlari yillik byulletenini boshqargan. Olim 1978-y. 28-oktyabrda Anqarada vafot etgan. “Journal of Turkish Studies” jurnalining XXIV-jildiga oid uch son O.S.Levend xotirasiga bag‘ishlangan (2000).

Olim N. ijodi va hayotiga doir bir qancha tadqiqotlarini e’lon qilgan. “Navoiy qo‘lyozmalari kutubxonalarda” (Â.S.Levend. Türkiye Kitaplıklarında Nevâyî Yazmaları, Türk Dili Araştırmaları Yıllığı Belletenı, 1958, 127-214); A.S.Levend, “Alisher Navoiy shaxsiyati, san’ati va hayoti” (A.S.Levend, Ali Şir Nevai hayatı, sanatı ve şahsiyeti, TTK, Ankara 1965); “Alisher Navoi” (Â.S.Levend. Ali Şir Nevâî, Türk Dili Dergisi, XV, 173, 1966, s.285-291); “Alisher Navoiy. Xamsa” (Ali Şîr Nevâyî. Hamse, III, Haz. A.S.Levend, Ankara 1967) shular jumlasidandir.

Ad.: *Sadettin Nüzhet Ergun. Türk Şairleri. – İstanbul, 1936; Behçet Yazar. Edebiyatçılarımız ve Türk Edebiyatı. – İstanbul, 1938; İbrahim Kutluk. Agâh Sırrı Levend, Hayatı ve Eserleri. – İstanbul 1963; İsmail Ulçugür, Agâh Sırrı Levend. – Ankara 1982; Hikmet Dizdaroğlu, "Gazavatnameler", TDl., VI/67 (1957); Hilmi Ziya Ülken, "Türk Destanı İçin Kaynak", a.e., VIII/86 (1958); İbrahim Olgun, "Yorulmayan Savaşçı Agâh Sırrı Levend", a.e., XXXVIII/327 (1978); Cahit Külebi, "Agâh Sırrı Levend İmrenilecek Bilimsel Yapıtlar Bırakarak Aramızdan Ayrıldı", Milliyet Sanat Dergisi, sy. 279, İstanbul 1979; Hatice Aynur, "Çok Yönlü ve Üretken Bir Cumhuriyet Aydını Agâh Sırrı Levend: Hayatı ve Eserleri", JTS, XXIV/1 (2000); Zuhal Kargı Ölmez, "Agâh Sırrı Levend'in Dilciliği ve Dilimize Bakışı", a.e., XXIV/2 (2000); "Levend, Agâh Sırrı", TA, XXIII; Muzaffer Uyguner, "Levend, Agâh Sırrı", TDEA, VI.*

N.H.

"LISONI RASUL" – unvon. Shayx Muhammad Aslam Tusiyning sharafli unvonlaridan biri. Bu haqda N. "N.M." tazkirasida "Ani "Lisoni Rasul" debdurlar", – deya ma'lumot beradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

B.R.

LISON UT-TAYR – N.ning umri oxirida yozilgan dostoni. N.:

Lek haq tavfiq bersa, men – gado,
Shayxning ruhig'a aylab iqtido.

O'yla qushlar-nutqini izhor etay,
Bulbul-u to'ti kibi g'uftor etay.

Tengrining lutf-u inoyat xonidin,
Ya'ni, ul Attorning do'konidin, –

deya ta'kidlaganidek, bu asar Fariduddin Attorning "Mantiq ut-tayr" dostoni ta'sirida yaratilgan asardir. Bolaligida "Mantiq ut-tayr"ni yod olgan shoir ayni ma'naviy bir xazinaga to'lgan yoshida unga munosib javob qaytaradi. Doston 3598 baytdan (176 kichik bobdan) iborat.

"L.T." an'anaviy hamd bobi b-n boshlanadi. "Biz bu omonatni (chin bandalik omonatini) osmonlarga, yerga va tog'larga taklif etdik. Ular uni ko'tarishdan bosh tortdilar va undan qo'rqdilar. Inson esa uni o'z zimmasiga oldi. Darhaqiqat, u o'ziga zulm qiluvchi va nodondir (Ahzob: 33/72)" oyati, shuningdek, "Kuntu kanzan xafiyyan fa xalaqtul xalqa (Men yashirin bir xazina edim, bilinishni istadim va meni bilsinlar deya maxluqotni yaratdim) kabi qudsiy hadislarga ishora qilinib, Xoliq va xalq munosabatidan, ko'ngilning sir-asroridan so'z yuritiladi. Arz-u samo, buyuk tog'lar qo'rqib qabul etmagan omonatni ahli zohir – Shariat, ahli botin esa – Ishq, deya tafsir etdilar. Inson tafakkur va tasavvur sohibi. Uning fikr qilish, xayol etish, tanlash imkoniyati bor. Biroq haqiqat yo'li bitta – bu shariati Islom, bu ishq safaridir. N. bu omonat b-n Inson Allohning yerdagi xalifasi bo'ldi, deydi:

Chun xaloyiqdin oni mumtoz etib,
"Kuntu kanzan" sirrig'a hamroz etib.

Boshig'a qo'yub hidoyat tojini,
Qismati aylab sharaf me'rojini.

Olam ichra andoq aylab muqtado,
Kim bo'lub xayli malakka peshvo.

Hamd bobdan keyin kelgan munojot ham buni to'la tasdiqlaydi:

Adl-u ehsoningg'a xos etgil meni,
Nafsi zolimdin xalos etgil meni.

...Qush tavajjuh aylasa uchmoq sari,
Tufroq etsa mayl ham tufroq sari.

...Boshima yetkur meni qo‘ymay hazin,
Onikim deb sen shafi’ul-muzannibin.

Dostonning 3-4-boblari Saidul-mursalin na’ti, shafi’ ul-muzannibin madhi va Me’roj tuni voqeoti bayonidan iboratdir. 5–12 boblarda 4 xalifa ta’rif-u vasflari keltiriladi. Chahoryorlar vasfidan keyin ularning fazilatlarini ko‘rsatuvchi tarixiy voqelikka asoslangan hikoyat beriladi. 13-bob “Qudvatul-ahror va qiblatul-abror Shayx Farididdin Attor (q.r.)ga bag‘ishlanadi. Shayxning “Musibatnoma”, “Ilohiynoma”, “Ushturnoma”, “Lujjayi hilol”, “Tazkirat ul-avliyo”, “Mantiq ut-tayr” kabi asarlari mazmun-mohiyatini aytib o‘tadi.

Dostonning asosiy qismi 14-bobdan boshlanadi. Qushlarning o‘rin talashib nizolashishlari va bir haqiqat nizomini o‘rnatuvchi podshohga ehtiyojmand ekanliklari bayon qilinadi. Shunda Hudhud odil podshoh Simurg‘ni ta’rif-tavsif qiladi. Qushlar ham bundan ta’sirlanib, ulug‘ shoh to‘g‘risida yanada ko‘proq bilishni istaydilar. Uning vasliga oshiqadilar. Shunda Hudhud:

Lekin ul vodiy nihoyatdin uzun,
Qat’ida ofat nihoyatdin fuzun.

Umrlar urmoq kerak tinmay qanot,
Necha karkas umricha bo‘lsa hayot, –

deydi. Asarning 15–20-boblari Simurg‘ va unga yetish mashaqqatlari xususidadir. Dostonning keyingi boblari qushlarning uzri, ya’ni yo‘l mashaqqatlaridan qo‘rquvi va Hudhudning tushuntirishlaridan iborat.

21–31-boblarda Hudhudning to‘ti, tovus, bulbul, qumri, kaklik, tazarv, durroj, kabutar, shohboz, shunqor kabi qushlar b-n suhbati beriladi.

33-bobdan qushlarning yo‘l mashaqqatidan qiynalib, uzrxohliklari boshlanadi. Hudhud asosli javoblar qaytarib, qushlarni ilhomlantiradi. Mazkur boblar to‘ti, tovus, bulbul, qumri, kabutar, kabki, tazarv, qarchig‘ay, shunqor, burgut, kuf, humoy, o‘rdak, tovuqlarning uzri va Hudhudning asosli targ‘iblaridan tashkil topgan. Qushlarning qusurlarini bir oyna tutgandek, Hudhud o‘zlariga ko‘rsatadi. Ushbu munozaralar hamda hikoyatlar 41 bob, ya’ni 32–73-boblarni tashkil etadi.

Mazkur asar Sharq adabiyotida o‘ziga xos janriy xususiyatlarga ega. Dostonda hikoyatlarning keltirilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu hikoyatlar o‘zidan oldingi bobda ko‘tarilgan mavzuni, ma’naviy bir holni teran anglashga va uning yechimini topishga yaqindan yordam beradi. N.ning hikoyatchilikdagi mahorati, mazkur janr taraqqiyotiga qo‘shgan ulkan hissasi ham alohida e’tiborga molik. “L.T.”da F.Attor dostonida ta’sirida 14 ta hikoyat, 51 ta N.ning original ijod mahsuli bo‘lib, jami 65 ta hikoyat keltirilgan. Bundan tashqari 9 ta tamsil ham berilgan. Hikoyatlar mavzusiga ko‘ra, 3 ga bo‘lib o‘rganilgan:

a) Simurg‘ning hidoyat yo‘lidagi targ‘ibtashviqidan iborat soxta darvesh, soxta bog‘bon, uquvsiz bog‘bon mechkay pahlavon, giyohvand darvesh kabi hikoyatlar;

b) tarixiy shaxslar Odam (a.s.), Ibrohim (a.s.), Sulaymon (a.s.), Muhammad (s.a.v.), chahoryorlar, Abdulloh Ansoriy, Abusaid Abulxayr, Abdulloh Ansoriy, Bahouddin Naqshband va h.klar to‘g‘risidagi hikoyatlar;

s) muallifning bevosita irfoniy qarashlarini aks ettirgan Simurg‘, Sidra daraxtidagi qushlar, Arastuning shogirdi haqidagi hikoyalardan iborat.

M-n, dostonda “Shayx Najmiddin Kubroning so‘zi va itga tushgan ko‘zi” nomli hikoyat keltiriladi. Qushlar o‘z hollariga ko‘ra ma’naviy yo‘lboshchi Hudhudga turli-tuman savollar bera boshlashadi. Avvalo, ularni nima sababdan Hudhudning ma’rifat sohibi-yu, o‘zlarining haqiqatdan bexabarliklari ajablantiradi. Zero, ular zohirda bir-biridan aslo farq etmas, bari bir jinsdadir. Oralaridagi bunday botiniy tafovutni Hudhud tasavvufdagi muhim masalalardan sanalgan nazar bilan bog‘lab izohlaydi. Ya’ni Hudhudga Sulaymon (a.s.)ning ko‘zi tushgan edi. Sulaymon (a.s.) esa Allohning nazari tushib tanlangan, ham rasul, ham ins-u jin, shuningdek, hayvonlar-u qushlarga podshoh etib saylangan nabiy. Hudhuddagi bun-

cha irfon, buncha izzatning boisi esa unga mana shu sultonning nazari tushishidandir. Chunki safo ahlining nazari kimgaki tushsa, uning ichki olamida bir evrilish bo‘lib, muqarrab qullardan biriga aylanadi. U ishq-u irfondan nasiba oladi.

Qushlar yo‘lda davom etarkan, Hudhuddan yo‘lni qisqa qilish, manzilga yetish usullarini (74–76-boblar) so‘raydilar.

Sayri sulukda solikka umid, sabr, tavakkul, rizo baxsh etuvchi Ishqdir. “Qolu balo” iqrorida ekilgan muhabbat urug‘i (tuxmi) bu dunyoda Ishq daraxtiga aylanadi. N. ham mutasavvif o‘laroq Dardni ishq ma’nosida anglab, bedardlig‘dan halok bo‘lishni, ahli dardlarning suffasida bo‘lishini aytadi. Va shu ishq bilan tariqat ostonasiga turgan toliblarga go'yo alohida asardek o‘rin olgan Shayx San’on (79-bob) hikoyatini keltiradi. Ishq haqidagi bu dostonda solik uchun muhim ibratlar bordir. Bosh qahramon g‘ayb sirlaridan ogoh, Ka’bada shayxul mashoyix, oldida har biri Junayd Bag‘dodiy, Boyazid Bistomiyday to‘rt yuz muridi bor Shayx San’ondir. Alloh unga ilmi laduniy nasib etgan ediki: “Voridoti Arshdin payg‘omdek, Voqeoti vahy ila ilhomdek”. Rum qizini tushida ko‘rib, shayx ko‘ngliga savdolar tushadi. “Qonidan yetti andomig‘acha ishq kiradi”. “Lohavlu” istig‘fori ham foyda bermagach, muridlari unga turli najot yo‘li: zikr, namoz, tahorat-u toat, tasbeh-u sajda, Ka’baga qaytish, Vatanga qaytish kabilarni aytishadi. Shayxga bular ta’sir etmay, Tarso qizining xaroboti, “zarqi fano”ni afzal biladi. Shayx Rumga safar qilganda, shayx as’hobiga xalifa sanalgan foniy murid Ka’baga qaytib, barcha voqealardan xabardor bo‘ladi. Va Rumga borib, shayxi uchun ko‘p duolar qiladi. Xotami nabiy nola-yu niyozi qabul bo‘lganligidan xabardor etadi. Shayx ham bu holdan voqif bo‘lib, mulamma’ xirqasini tashlab, g‘usli pok aylab, irshod xirqasini kiydi. Muridlari ila vataniga qaytadi. Shunda tarso tushiga Iso (a.s.) kirib, unga mezbonliq tariqini bilmaganidan, tez yetib uzrxohlik qilib, uning diniga kirishini aytadi.

Keyingi boblar tariqat tarbiyasidagi usul-u arkonlar, tasavvufning ma’lum nazariy qoidalarini amalga tatbiq etishdan iborat. Dostonning 80–148-boblarida qushlarning nomi aynan keltirilmay, umumiy qush nomi b-n qilingan savol-javoblar beriladi.

Ma’no olamidagi safar juda qattiq va uzun bo‘lishiga qaramay, komil murshid tajribasi bilan yetti vodiyga ajratilib, kenglik hosil qilinadi. 149–165-boblar Talab, Ishq, Ma’rifat, Istig‘no, Hayrat, Tavhid va Fano vodiylari tavsifi va bu vodiylar sir-sinoatini ochuvchi hikoyatlardan iborat.

Inson o‘zining Olami akbar ekanligi, unda hamma olamlar mujassamligini anglamog‘i kerak. Asar so‘ngida Simurg‘ (30 qush)ni izlayotganlar orasidan 30 ta qushning qolishi kabi ramziy ishoralar vahdat holini ko‘rsatadi. Dostonning 170–174-boblari N.ning ma’naviy rutbasi, Attor ila munosabatini ko‘rsatishi b-n alohida e’tiborga loyiq. Farididdin Attorni qaqnus, o‘zini esa qaqnusbacha deb ataydi:

Men demonkim ul otodur, men o‘g‘ul,
Ul shahi oliy sifot, men banda qul.

Kim bu o‘tqa ul kuyub avval nafas,
Barcha olamg‘a o‘t ul soldi-yu bas.

175-bobdan boshlab 7 tariq (Talab, Ishq, Ma’rifat, Istig‘no, Hayrat, Tavhid va Fano) adosida munojot va har biridan so‘ng 7 tamsil keladi. Ta’kidlash joizki, asarda munojotlar ham asosiy o‘rinni egallaydi, chunonchi, 189-bob “Bu kitob nazmida o‘z munosabatining taqribi” deya nomlanib, bolaligida “Mantiq ut-tayr”ni yod olgani haqidagi xotiralarni aks ettiradi. Undan keyingi tamsildan so‘ng bu kitobga Foniy taxallusini qo‘llashi uzri va sababini ko‘rsatib o‘tadi:

Turkiy uslub erdi ham bu doston,
Topqudek erdi Navoiydin nishon.

Bu raqamda Foniy aylarga laqab,
Mustame’ bo‘lg‘ong‘a ayturmen sabab.

Munda Foniy bo‘lmay ish o‘lmas tamom,
Foniy ondin topti nazmim ixtimom.

192-bob Husayn Boyqaroga bag‘ishlangan. Dostonning so‘nggi “Bu nazm tarixi guftori va o‘zining iste’fo va istig‘fori” nomli 193-bobida asarning yozilish tarixi beriladi, shuningdek, doston N.ning ma’naviy rutbasi, go‘zal axloqini namoyon qiluvchi quyidagi satrlar bilan yakunlanadi:

Lutf ila, yo Rabki, borin afv qil,
Nomayi a’moldin ham mahv qil.

Har parishon so‘zki yozdim, yo karim,
Barchadin astag‘firilloh, al-azim.

Doston “Mantiq ut-tayr” kabi ramali musaddasi mahzuf (foilotun foilotun foilun // -V-- / -V-- / -V-) vaznida yozilgan. “L.T.”ning ilmiy-tanqidiy matni adabiyotshunos Sh.Eshonxo‘jayev tomonidan tayyorlangan. Dostonning hozirgi o‘zbek tilidagi nasriy bayonining asosiy qismi Sh.Sharipov, ayrim boblari V.Rahmonov tomonidan amalga oshirilgan. Dostonning nasriy bayoni Manzar Abdulxayr tomonidan ham bajarilgan. Mazkur nasriy bayonlar asosida ilk bor G.Dik va N.Qambarov hamkorligida ingliz tiliga tarjima qilingan, keyinchalik D.Rodhiver va Sh.Azimov tomonidan ushbu tarjima to‘ldirilgan. Shuningdek, doston qardosh turkiy xalqlar tillari va rus, polyak, fransuz va boshqa ko‘p tillarga ham tarjima qilingan.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Шарипов Ш. Алишер Навоий “Лисон ут-тайр” достонининг генезиси ва ғоявий-бадиий хусусиятлари. – Т., 1982; Сирожиддинов Ш., Юсупова Д., Давлатов О. Навоийшунослик. – Т., 2018; Алишер Навоий: Қомусий луғат. 1–2-жилдлар. – Т., 2016; Раҳмонова З. Ишқ, ирфон ва иршод. – Т., 2021; Олимов С. “Лисон ут-тайр”нинг қиёсий поэтикаси: синтез, назиравийлик ва таржимавийлик: филол. фан.док...дисс. – Самарқанд, 2023.*

Z.R.

LOBACHYEVSKIY nomli ilmiy kutubxona – Qozon Federal universiteti qoshidagi ilmiy kutubxona. Bu yerda Sharq qo‘lyozmalarining juda ko‘p noyob nusxalari saqlanadi.

Qozon Federal universitetining L.N.I.K.sida N. asarlarining 5 ta qo‘lyozma nusxasi mavjud. Ulardan biri XVI asrga oid, yana biri 1568-y. Hirotda ko‘chirilgan. Qolgan uchta qo‘lyozma ancha keyingi davrlarga mansub, bittasi 1868-y. da, ikkitasining ko‘chirilgan vaqti XIX asrdan oldin emas.

Ular universitet kutubxonasi fondiga qo‘lyozmalarning maqsadli ravishda sotib olinishi natijasida yoki arxeografik ekspeditsiya davomida kelib tushgan.

A.A.Bobrovnikov va N.F.Katanovning obzorlarida Qozon universiteti kutubxonasidagi qo‘lyozmalar qayd etilmagan. Lekin bu hol XX asrgacha ular kutubxonada bo‘lmagan deb hisoblashga asos bermaydi. Bizga o‘sha paytga qadar bu yerda “X.” qo‘lyozmasi hamda “Abushqa” lug‘atining I.F.Gotvald tomonidan qo‘lda ko‘chirilgan bir qismi bo‘lgani ma’lum.

N. asarlarining yana bir qo‘lyozmasi ham yaratilish nuqtayi nazaridan noyob hisoblanadi (shifr 2043). U XIX asrda Nurlatlik Sadratdin degan kotib Kasimovalik Hamza Muhammatgarey Maqsudovning buyurtmasiga ko‘ra, bir she’riy to‘plam tuzgan va uning 62-76 betlaridan N. she’rlari o‘rin olgan. Ushbu qo‘lyozma aynan Qosimov shahrida Qozon universiteti xodimi S. Fayzullinning ekspeditsiyasi chog‘ida topilgani diqqatga sazovor. S.Fayzullin qo‘lyozmani Lobachevskiy fondiga topshirgan.

Ad.: *Зайцев И.В. Рукописи Алишера Навои в собраниях Казани (к 580-летию великого поэта. Каталог. – Москва-Казань, 2021.*

B.R.

LOLA – N. she’riyatida qo‘llangan badiiy obraz. Irfoniy adabiyotda L. turli ramz va ma'nolarda keladi:

a) oshiqini azoblagan ma’shuqaning gul rangli chehrasi:

Tonimay dedi: –“Mening yorim qani
Sarv bo‘yluq lola ruxsorim qani?”

b) mushohada natijasida ko‘ngilda hosil bo‘lgan ma’rifat:

Soqiyo, rahmiki tortib lola sog‘ar
dam-badam,
Lolagun sog‘arg‘a men bo‘lmay
dame hamdam hanuz.

d) L. arab yozuvida Alloh so‘ziga o‘xshash bo‘lganligi, abjad hisobida raqam qiymati 66 ga tengligi sababli Allohning birligi hamda go‘zalligi ramzi sifatida qo‘llanadi. Shu sabab ba’zan Alloh kalimasi L. kabi yoziladi.

N. lirikasida L. obraz darajasiga ko‘tarilgan so‘zdir. “N.Sh.” devonidagi 183-g‘azal qofiyalari L. asosli so‘zlar va L. so‘zi b-n kelgan birikmalardan hosil bo‘lgan: lolavordur, lolazordur, lola bordur, lolakordur, lola xordur, lola yordur, lolabordur.

Ko‘z qonidin dema, etagim lolavordur
Kim, ko‘hi dardning etagi lolazordur.

Ad.: *Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик. 2 жилд. – Т., 2011; Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005.*

Z.R.

LOMISA – til, ta’m bilish a’zosi. “X.”-ning ilk dostoni – “H.A.”ning 20-bob 3-bobida L. lafziga duch kelinadi. Ma’lumki, XVII–XIX boblarda Ko‘ngilning yo‘qlik tunidan borliq gulistoniga kelganida va to‘qqiz qavat falaklar bo‘ylab kezganidagi hayratlari tasvirlari beriladi. Ko‘ngilning uchinchi hayrati badan shahristoniga bo‘lib, u inson tanasining har bir burchiga boradi va misralardan ma’lum bo‘lishicha, San’atkor Me’mor – Alloh taolo yumaloq bir shaklda bir qasr bunyod etgan – inson boshi. Mana shu qasrda beshta sahn tayyorlangan bo‘lib, u yerdan hamma yoqni tomosha qilish mumkin”. N. ana shu baytdan boshlab insonning besh sezgi a’zosiga doir mulohazalarini talqin etadi. Shoir ularda bilish nazariyasiga oid konsepsiyasini olg‘a surgan. U besh sezgi a’zosini

“Basira-yu somiya-yu lomisa,
Zoyiqa-yu tomma bila xomisa”,

deb sanaydi.

Demak, bu supalarni bir-biridan usta va mohir kordon – tadbir sohiblari egallagan; ular o‘zlari sohib bo‘lgan hunarda tengsizdirlar; xo‘sh, ular kim? Birinchisi – ko‘rish quvvatidir (basira). Ko‘rish ko‘z b-n yuzaga chiqadi. Ikkinchisi – eshitish qobiliyatidir (somia), bu vazifani quloq ado etadi. Uchinchisi – ta’m bilish (lomisa). Bu ishni til bajaradi. Tilning o‘zi ba’zan o‘lim nayzasiga aylansa ham, hayot bag‘ishlasa ham, u ta’m ajratishga mas’ul. To‘rtinchisi – hid sezishdir (zoiqa). Burun xoh quruq, xoh namchil bo‘lsin, hidlarni qabul qiladi. Beshinchisi – sezishdir (tomma). Issiq va sovuqni his etmoqdir. Bu xususiyat badanning har nuqtasiga berilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6 жилд. – Т., 2011.*

S.O‘.

LOT – Arablarning islomgacha bo‘lgan asotirlariga ko‘ra, osmon va yomg‘ir ma’budi. Shom biyobonida L.ni ma’budlar onasi hisoblaganlar. Markaziy Arabistonda esa uni Manot va Uzzo ma’budlarining onasi sanaganlar. L. Toifdagi saqif qabilasining bosh ma’budasi hisoblangan. Toifda L. sanamining ramzi – oq tosh joylashgan. Ushbu tosh va uning yonidagi sajdagoh ziyoratgoh sanalgan, vodiyning o‘zi muqaddas joy

hisoblangan. Islomgacha L.ga barcha arablar sig‘inganlar. L., Manot va Uzzoga qasamyod qilib, butlar atrofida aylanar va ularga qurbonliklar keltirardilar. Bolalariga Zaydullot, Zaydullanot, Taymullot, Abdulmanot, Abduluzzo kabi ismlar qo‘yganlar. L. sanami Makkadagi sajdagohda turgan. 631–632-yy.da saqifiylar islomni qabul qilgach, L. sajdagohi buzib tashlangan.

Sharq she’riyatida L., Manot va Uzzo badiiy obrazlar sifatida qo‘llanadi.

L. goh o‘z ma’nosida, goh majoziy ma’noda N. she’riyatida ham uchraydi. M-n, quyidagi baytida: “Yorning porloq chehrasi turganda quyoshga sajda qilish Alloh turib, L.ga sig‘ishga o‘xshaydi”, – deb yozadi:

Quyoshqa kimki yuzung borida qilur sajda,
Parastish aylamak angla Iloh ollida Lot.

Mana bu baytida esa majoziy ma’noda dunyo aloyiqlari, nafs hoy-u havaslari ma’nosida keladi:

Ko‘r Navoiyniki, ko‘ngli uyidur butlar ila
O‘yla butxonaki, anda to‘ladur Lotu Manot.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик, 3-жилд. – Т., 2011; Ислом. – Т., 2004; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 2. – Душанбе, 1989.*

Ab.H., E.O.

LO TUSRIFU (isrof qilmanglar). Bu iqtibos Qur’oni Karimning A’rof surasi, 31-oyatidan olingan bo‘lib, oldingi jumlalar b-n shunday ma’noni ifodalaydi: “... yeb ichingiz, (lekin) isrof qilmangiz! Zero, U isrof qiluvchilarni sevmagay”.

N. “H.A.”ning 5-maqolatida “Karam” (jo‘mardlik, saxovat)ning fazilati, ayni paytda karamning turlari, haqiqiy saxovat qanday bo‘lishi haqida mulohazalar bildirib, yeb-ichish barobarida isrofga yo‘l qo‘ymaslik Tangrining talabi ekanligini uning oyatlari orqali ta’kidlab o‘tadi:

Chun dedi Tengriki, “kulu vashrabu”,
Yonida dediki, “valo tusrifu”.

Tangri “yeb-ichinglar”, dedi, ammo yonida “isrof qilmanglar”, – deb ta’kidladi.

Ad: *Қуръони Карим. Маъноларининг таржима ва тафсири. – Т., 2018. (Тарж. Шайх Абдулазиз Мансур); Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6 жилд. – Т., 2011.*

S.R.

“LO UHSI” ... – son-sanoqsiz, sanay olmayman. Bu so‘z Oisha raziyallohu anhudan rivoyat qilingan va bir hadis oxirida keladigan “Lo uhsi sanoan alayka kamo asnayta alo nafsika” jumlasidan iqtibos olingan bo‘lib, ma’nosi shunday: “(Payg‘ambar alayhissalom Allohga duo qilib aytgan) Sen o‘zingga hamd-u sano aytganing, (o‘zingni ta’riflaganing) kabi men senga sen loyiq bo‘lgan tarzda hamd-u sano aytolmayman”.

N. hamd b-n bog‘liq o‘rinlarda o‘zining ojizligini, munosib hamd aytolmasligini ta’kidlaydi. Hatto Muhammad (s.a.v.)dek ulug‘ zot ham Allohga loyiq hamd aytolmaganiga ishora qiladi. Jumladan, N. “L.M.” dostonidagi munojotida shunday deydi:

Hamdingni demak chu bo‘ldi komi,
“Lo uhsi” edi aning kalomi.

Quyidagi baytda ham ulug‘ shoir Alloh hamdining munosib tarzda aytish qiyinligini ta’kidlab, ikki hadisdan ikki jumlani iqtibos qilib keltiradi: Har ikkala hadisda ham Muhammad (s.a.v.) Allohga loyiq hamd aytolmaganini e’tirof etgan:

Sanovu zoting ichra topib ajz, ahli idrok,
Gahi “lo uhsi” aytib, zamonye “mo arafnok”.

N. she’riyatida keltirgan iqtiboslardan ma’lum bo‘ladiki, biz shoir ijodini yaxshi bilish va maqsadini tushunish u-n u keltirgan iqtiboslar-

ning ma’nosi va manbasidan xabardor bo‘lishimiz kerak.

Ad.: Саҳиҳи Бухорий. 1-2-жилдлар. – Т., 2008; Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. ТАТ. 10 жилдлик. 7-жилд. – Т., 2011.

S.R.

LOYAZOL (ar.) – zavol bilmaslik, doimiylik, abadiylik: Xudoning sifati. Xudoning zavol bilmasligi va ustuvorlik xususiyatlarini izhor qilish maqsadida qo‘llaniladi.

Ey jamoling loyazol-u bebadal husnung jamil,
Oy yuzungdur ahsani taqvim uchun ravshan dalil.

Hayyi L. – doimiy tirik Xudo:

Kimsaga bu yo‘lda Hayyi loyazol
Bu tariq ichra nasib etmish kamol.

Ad.: Ғиёс ул-луғот. Жилд 2. – Душанбе, 1988; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик, 2-жилд. – Т., 1984.

E.O.

LOYA’QIL (ar.) – 1. Beaql. 2. Behush.

Masti L. – aql-u hushidan ajralgan darajadagi qattiq mast.

To bo‘lay ul nav’ loya’qilki, kelmay hushima,
Qilsa yuz Farhod ila Majnun nasihatdin madad.

Aqldan mahrumligi va shunday bo‘lib qolishi u-n ko‘proq nodon hayvonni ko‘zda tutadilar.

Ad.: Муҳаммад Ғиёсиддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 2. – Душанбе, 1988; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик, 2-жилд. – Т., 1984.

A.A.

“LUBOB UL-ALBOB” – Muhammad Avfiy Buxoriy tomonidan 1222-y.da yozilgan birinchi tazkira.

“L.A.” 2 qismdan iborat.

I qism muqaddima va 7 bobni tashkil qiladi. Muqaddimada va avvalgi 4 bobda she’r va shoirlik fazilati forsiyda birinchi she’r yozgan odam haqida so‘z ketadi. 3 bobda 130 nafar she’riyatga moyil bo‘lgan podshohlar, amirlar, vazir va boshqa donishmandlar haqida ma’lumot bor.

II qism – 5 bob va xotimadan iborat. 169 nafar shoirlar haqidadir. “L.A.”, ayniqsa, IX va XIII asrda yashagan shoirlar hayoti va ijodini o‘rganishda muhim manba rolini o‘taydi. Chunki bu davr shoirlari merosi mo‘g‘ullar istilosi vaqtida yo‘qolib ketgan.

N. “L.A.”ning ilg‘or jihatlarini, jumladan, shoirlar haqidagi ma’lumotlarni silsilaga ko‘ra keltirish, shoirlar haqida og‘zaki naqllardan istifoda etish, she’riyat bilan muttasil mashg‘ul bo‘lmagan shoirlar yoki jug‘rofiy prinsipda shoirlar haqida ma’lumot berish kabilarni “M.N.”da davom ettirgan.

“L.A.” b-n Avfiy tazkirachilik janriga asos soldi. Keyinchalik faqat fors tilida emas, balki turkiyda ham qator tazkiralar yaratildi.

“L.A.” E.Braun tomonidan 2 jildda (1906-1909) va Sayid Nafiy tomonidan 1954-y.da nashr etilgan.

Ad.: Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9 жилд. – Т., 2011; Бертельс Е.Э. Навои и Джами. – М., 1965; Вахидов С. Жизнь и творчество Муаммад Ауфи. – Душанбе, 1989.

S.G‘.

LUNIN Boris Vladimirovich (1906–2001) – tarixchi olim, manbashunos, bibliograf, tarix fanlari d-ri. (1966), prof. (1970), akad., O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi (1973). 600 dan ortiq ilmiy ishlar muallifi. Bibliografik xarakterdagi ilmiy tadqiqotlarida N. asarlarining Rossiyada o‘rganilishi b-n bog‘liq muhim ma’lumotlarni ham keltirgan.

Ad.: *Лунин Б.В. Вклад русских ученых в изучение жизни и творчества Алишера Навои. // Общественные науки в Узбекистане, N4, – T., 1968; Лунин Б.В.Средняя Азия в дореволюционном и советском востоковедении, – T., 1965; Лунин Б.В. Средняя Азия в научном наследии отечественного востоковедения. Историографический очерк. – T., 1979.*

G.X.

LUT (a.s.) – Qur’oni Karimda yigirma yetti marta nomi zikr qilingan payg‘ambar. U Harron shahri (Mesopotamiya)da tavallud topib, Ibrohim (a.s.) b-n birga Falastinga borgan. Sadum, Amura va uning atroflaridagi yerlarda chorvachilik b-n shug‘ullangan. Payg‘ambar bo‘lganidan keyin bu yurtlardagi odamlarni yolg‘iz Allohga ibodat qilishga, gunoh ishlardan, tavba qilishga chaqirgan. Butparastlik va bachchavozlik illatiga mubtalo bo‘lgan xalq esa uning so‘ziga quloq solmagan, aziyatlar yetkazishgan, hatto yurtidan haydab chiqarmoqchi bo‘lishgan.

N. “T.A.H.”da yozishicha, L. (a.s.) “Ibrohim (a.s.)ning qardoshi Horun o‘g‘li”dir. Tangri uni besh yoki yetti shahardan iborat bo‘lgan, butparastlik va bachchabozlik avj olgan Mu’tafikot mintaqasi xalqini to‘g‘ri yo‘lga boshlash u-n payg‘ambar qilib yuboradi. Ba’zi tarixchilar Mu’tafikot – Lut biyoboni nomi b-n mashhur bo‘lgan Siyston va Kirmon orasidagi shaharlar desalar, ayrimlari Shom mamlakatidagi Ardo nohiyalaridir, deyishgan.

L. (a.s.) bu qavmni yigirma yildan ortiq da’vat qilgan bo‘lsa ham, ozgina kishilar unga ergashgan. Bu qavmning eng yomon odatlaridan biri, yurtlarida paydo bo‘lib qolgan musofirlar b-n fahsh ishlar qilishga shoshilishardi. L. (a.s.) ularni tarbiyalashdan ojiz qolgandan keyin duoyibad qiladi.

L. (a.s.) qarindoshi Ibrohim (a.s.)dek mehmonparvar bo‘lgan. Bir kuni Haq taolo L. qavmini halok qilish u-n uning uyiga farishtalarni yosh yigitlar suratida yuborgan. L. (a.s.) ularni tanimay ziyofat qilmoqchi edi. Bu mehmonlardan xabar topgan qavmi L. (a.s.)dan mehmonlarni topshirishni va maqsadlarini qondirishni talab qilishgan. L. (a.s.) eshigini mahkam yopib, ertalabgacha ulardan muhlat so‘ragan.

Yarim kechasi farishtalar L. (a.s.)ga o‘zlarini tanitib, nima maqsadda kelganliklarini aytishgan va unga yaqin kishilarini olib, shahardan chiqib ketishini tayinlashgan. L. (a.s.) shahardan chiqib ketgandan keyin Jabroil (a.s.) u shaharni ostin-ustin qilgan, butun qavm osmondan yoqqan sijjil toshi ostida halok bo‘lgan. Hatto kofir qavmidan bo‘lgani u-n L. (a.s.)ning xotini ham u toshdan halok bo‘lgan. Bu voqea Qur’onning “Hijr” surasi, 61-65-oyatlari va 74-oyatida bayon qilingan. Keyinchalik bu dinsiz qavm yashagan shahar o‘rnida dengiz paydo bo‘lgan va u “O‘lik dengiz” va “Lut oroli”, – deb nomlanadi. L. (a.s.) Ibrohim (a.s.) qabri yonida dafn etilgan.

Masnaviy:

Gar Lut va gar livota ahli –
Kim ketgali keldilar jahong‘a.
Ko‘rguzmadi bu jahoni g‘addor,
Ne yaxshig‘a mehr, ne yomong‘a.

Ad: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – T., 2011; Ислом. Энциклопедия. – T., 2004; Қуръони Карим. Ўзбекча изоҳли таржима. (Таржима ва изоҳлар муаллифи Шайх Алоуддин Мансур) Қирғизистон, 2004.*

S.R.

LUTF (ar. − iltifot, nazokat, balog‘at) − so‘z yoki so‘z birikmasini bir necha ma’noda ishlatishga asoslangan badiiy san’at. U tajnis va iyhomga ham o‘xshab ketadi. Tajnisdan farqi shundaki, tajnisda shakli bir xil-u ma’nosi har xil so‘z ikki yoki uch marta ishlatilsa, lutfda bir so‘zning o‘zi bir necha ma’noda keladi. Iyxomdan esa nisbatan oson sezilishi bilan ajralib turadi.

L. xalq og‘zaki ijodida, xususan, askiyada faol qo‘llanadi.

L. tilning ko‘pma’nolilik imkoniyatlari b-n bog‘liqligi u-n ham shoirlar bundan mahorat b-n foydalanadilar − bunda so‘zlarning omonimlik xususiyatlari nihoyatda qo‘l keladi; atoqli va turdosh otlar haqida ham shunday deyish mumkin. So‘zlarning yozilishi b-n bog‘liq o‘ziga xosliklardan ham ijodkorlar bu borada mahorat b-n foydalanadilar. Shuningdek, muayyan vaziyat va sharoit b-n bog‘liq tasodifiy L.lar ham bo‘ladi.

N. o‘z ijodida L. san’atidan ham mahorat b-n foydalanadi. M-n, N.ning quyidagi baytida “ko‘ngul so‘rg‘oli” iborasi ikki ma’noda: “Ko‘ngil so‘ramoq – dalda berish”, “Ko‘ngil so‘ramoq – izlab” ma’nosida kelgan:

Ko‘ngul so‘rg‘oli keldi, tabibo, muni bilkim,
Ul ovoradin sendek menga ham xabar yo‘qtur.

L. xalq og‘zaki ijodi, xususan, askiya janrida keng qo‘llaniladi. Ammo mumtoz she’riyatimizda mahorat b-n ishlatilgan lutflar ko‘p.

Ad.: *Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик, 2 жилд. – Т., 2011; Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Т., 2002.*

E.O.

LUTFIY (1366–1465, Hirot) – shoir. Hirot

chekkasidagi Dehikanor qishlog‘ida tug‘ilgan. O‘z davrining barcha asosiy bilimlarini egallagan shoir Mavlono Shihobiddin Xiyoboniy huzurida tasavvuf ilmi b-n ham maxsus shug‘ullanadi. N. ma’lumotiga ko‘ra, u uzoq – 99 yil umr ko‘rgan.

L. rasman sulukka kirgan, tariqat talablarini bajargan va riyozat chekib, muayyan darajaga yetishgan. Shuning uchun ham N. tasavvuf shayx-u avliyolariga bag‘ishlangan “N.M.” tazkirasida unga ham o‘rin ajratadi:

“Tahsil ayyomida Mavlono Shihobuddin Xiyoboniy xizmatiga yetar ekandur va odobi tariqat sulukini andin kasb qilur erkondur. Agarchi shoirlik tariqida ma’ruf va mashhur bo‘ldi, ammo darveshlik tariqini dag‘i ilkidin bermadi”. Hodi Zarif ham “Lutfiyning g‘azallarida uchraydigan ba’zi so‘z va iboralar shuni ko‘rsatadiki, Lutfiy so‘fiylarga yaqin turgan, ularga muxlis bo‘lgandir”, – deb yozgan edi.

Erkin Ahmadxo‘jayevning eng so‘nggi ma’lumotlariga ko‘ra, L.ning hozirgacha topilgan adabiy merosi 2274 bayt (5548 misra)dan iborat bo‘lib, 3 ta qasida, 372 ta g‘azal, 115 ta to‘rtlik, 60 ta fard va 22 bayt hajmidagi parokanda she’rlardan iborat. Shoir devoni uning hayotlik vaqtidayoq keng shuhrat qozongan, nafaqat Movarounnahr va Xuroson, balki Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida ham tarqalgandi.

L.ning nafaqat turkiy, balki forsiy she’rda ham naziri yo‘q edi. Uning forsiy devoni ham mavjudligi haqida fikrlar bo‘lsa-da, taqdiri hozircha noma’lum. Forsiy ijodidan ba’zi namunalar N. va unga zamondosh olimu adiblarning asarlarida keltiriladi. M-n, umrining oxirida “Oftob” radifli bir g‘azal aytadi, zamon shoirlarining barchasi unga tatabbu’ qiladilar, lekin hech qaysisi matla’ni unga yetkazib bilmadi. Yana bir mashhur forsiy g‘azalni boshlaydi-yu, lekin nihoyasiga yetkazolmaydi, so‘ng Abdurahmon Jomiyga uni tugatib, o‘z devoniga kiritishini vasiyat qilib ketadi. Bu vasiyatni Jomiy mamnuniyat b-n ado etadi.

L. Jomiy va N. b-n do‘stona munosabatda bo‘lgan. Ular adabiyot va she’r xususida ko‘p suhbatlar qurganlar, bahs-u munozaralar qilganlar, bir-birining g‘azallariga tatabbu’lar bitishgan, muxammaslar yozishgan. Chunonchi, N. ning “N.M.” asarida keltirilishicha, L. 90 yoshdan o‘tganda, Abdurahmon Jomiyga bag‘ishlab, saj’ usulida “Suxan” radifli qasida yozadi. Qasidaga barcha ilm-u adab ahli yuqori baho beradilar, hatto Jomiyning o‘zi ham qoyil qoladi.

L. turkiy g‘azalchilikning zabardast ustozlaridan hisoblanadi. Uning bu boradagi mahoratidan

Gadoiy, N., Husayn Boyqaro kabi zamondoshlaridan tortib, Bobur, Fuzuliy, Mashrab, Ravnaq, Munis, Ogahiy, Amiriy, Nodira, Uvaysiy, Muqimiy, Furqat singari o‘zbek mumtoz adabiyotining barcha so‘z san’atkorlari bahramand bo‘ldilar, shoir g‘azallariga tatabbu’lar yozdilar, taxmislar bog‘ladilar.

N.ning “H.P.M.” asarida ustozining zamondosh turkigo‘y shoirlardan senga ma’quli va maqomi balandrog‘i qaysi degan savoliga:

– Mavlono Lutfiy holo musallamdurlar va bu qavmning ustodi va malik ul-kalomidur, – deb javob berishi bejiz emas.

N.ning badiiy didi nihoyatda yuksak bo‘lib, uncha-muncha shoirni e’tirof etavermagani ma’lum. U o‘ziga ustoz deb bilgan shoirlar silsilasini Nizomiy Ganjaviy, Sa’diy Sheroziy, Amir Xusrav Dehlaviy, Farididdin Attor, Mavlono Jaloliddin Rumiy, Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy kabi Sharq so‘z san’atining zabardast namoyandalari tashkil etib, ular qatorida zikr etilishining o‘zi Mavlono L.ning shoirlik salohiyati naqadar baland ekanligini ko‘rsatib turibdi. “Mavlono Lutfiy so‘z lutfida yagonayi davron edi. Undan ilgari hech kim turkiy tilda she’rni undan yaxshiroq ayta olmagan”, – deb yozgan edi Xondamir ham.

L.ning o‘zbek mumtoz so‘z san’atidagi ulkan mavqe-maqomi shundan iboratki, u forsiy va turkiy she’riyat o‘zigacha erishgan barcha yutuqlarni o‘z ijodida mujassam etdi va o‘zbek adabiyoti taraqqiyotiga katta hissa qo‘shdi, xususan, N.dek ulug‘ shoirning so‘z maydoniga chiqishi u-n zamin bo‘lib xizmat qildi.

N. L.ni o‘ziga ustoz deb bilgan, unga ergashgan, undan ta’sirlangan. N. va L. munosabatlari adabiyotshunoslikda keng yoritilgan. Yosh Alisherning:

Orazin yopqoch, ko‘zumdin
sochilur har lahza yosh,
Bo‘ylakim paydo bo‘lur yulduz nihon
bo‘lg‘och quyosh, –

matla’li g‘azaliga o‘zining butun ijodini almashmoqchi bo‘lgan. Bu bir tomondan, uning N.ning she’riy salohiyatiga tan berib, uning siymosida o‘zbek so‘z san’atini yuksak cho‘qqiga olib chiqadigan iste’dodni ko‘rganidan dalolat edi, shuningdek, ikkinchi tomondan, L.ning ustoz sifatidagi bag‘rikengligi va tantiligini ko‘rsatadi.

“Bu faqir borasida ko‘p fotihalar o‘qubdur. Umid ulkim, chun darvesh kishi erdi, ba’zi mustajob bo‘lmish bo‘lg‘ay”, – deb yozadi bu haqda N.ning o‘zi.

N. o‘zining ko‘plab asarlarida L. haqida yozadi, uning iste’dodi va asarlariga baho beradi. M-n, “M.N.”da o‘qiymiz:

“Mavlono Lutfiy o‘z zamonining malik ul-kalomi erdi, forsiy va turkiyda naziri yo‘q erdi, ammo turkiyda shuhrati ko‘prak erdi va turkcha devoni ham mashhurdir va mutaazzir (qiyin, mushkul) ul-javob matla’lari bor, ul jumladan biri budurkim:

Sayd etti dilbarim meni oshufta sochdin,
Soldi kamand bo‘ynuma ikki qulochdin”.

“M.L.” asarida Amir Temur davridan Shohrux Mirzo zamonining oxirigacha Sakkokiy, Haydar Xorazmiy, Atoiy, Muqimiy, Yaqiniy, Amiriy, Gadoiy kabi xusht’ab shoirlar yetishib chiqdilar, lekin L.dan boshqa Firdavsiy, Nizomiy, Amir Xusrav, Shayx Sa’diy, Xo‘ja Hofiz kabi zabardast forsiy shoirlarga bo‘ylasha oladigan shoir chiqmadi – uning bir necha matla’lari borki, tab’ ahli qoshida o‘qisa bo‘ladi, deb misol tariqasida quyidagi baytni keltiradi:

Ulki, husn etti bahona elni shaydo qilg‘ali,
Ko‘zgudek qildi seni o‘zini paydo qilg‘ali.

“H.S.H.A.” asarida ustozining uyida o‘tadigan she’r va musiqa kechalarida ulug‘ fors so‘z san’atkorlari qatorida “turkigo‘y shuarodin Mavlono Lutfiy she’rlaridin” baytlar o‘qilishi haqida xabar berib, jumladan, quyidagi mashhur matla’sini ta’rif qilishlarini aytadi:

Nozuklik ichra belicha yo‘q torti gisuyi,
O‘z haddini bilib, belidin o‘lturur quyi.

L. she’riyati xalqona sodda va samimiy ruhi, badiiy tasvir vositalariga boyligi b-n alohida ajralib turadi. Aytish mumkinki, u ilhomni xalq ichidan izladi, chunki xalq maqol-matallari, xalq ichida yurgan turli obrazli iboralardan o‘z ijodida mahorat bilan foydalandi. L. tashbeh-u timsollarni ham kundalik hayotdan, atrofimizdagi narsalardan oladi, ya’ni uning tashbehlari mavhum bo‘lmay, fikr-kuzatishlarini aniq narsa-holatlarga o‘xshatadi.

N.ning shoir sifatida shakllanishida L.ning roli, asarlarining ta’siri nihoyatda katta. Bo‘lajak so‘z saltanatining sultoni L.ni o‘ziga ustoz deb bilgan, unga ergashgan, undan ta’sirlangan. U buyuk salafining “O‘ynar”, “Edi”, “Erur”, “Bo‘lg‘ay”, “Sari”, “Meni”, “Ayladi”, “Uchradi” radifli qator g‘azallariga tatabbu’ qilgan, “Ey, soching shaydo ko‘ngullarning savodi a’zami”, “Ko‘ktadur har dam fig‘onim ko‘rgali sen mohni”, “Laylat ul-me’rojning sharhi sochi tobindadur” misralari b-n boshlanadigan 3 g‘azaliga muxammas bog‘lagan bo‘lsa, “Ey, jamoling loyazolu bebadal husnung jamil”, “Ey, qading to‘bi-yu jannat xaddi gulgun ustina” misralari b-n boshlanadigan g‘azallarini musaddasga aylantirgan. Buning ustiga, “Kerak erdi”, “Emishtuksen” kabi qator lutfiyona g‘azallar, ko‘plab misra va baytlar tizgan.

L.ning:

Ey xush ul soat manga gar vasli
yore yor edi,
Dardima darmon-u g‘amg‘a
g‘amgusore bor edi, –

bayti b-n boshlanadigan g‘azaliga:

Bor edi ul hamki, bir chog‘ bizga
yore bor edi,
Kulliy ar yor o‘lmasa filjumla
bore yor edi, –

maqta’si b-n boshlanadigan tatabbu’ bitadi. Lekin bu g‘azalda u shaklan o‘z ustoziga izdoshlik qilsa, “Ey do‘stlar” radifli g‘azalida mazmunan ergashadi – qachondir o‘zining ham yori bo‘lganligi, lekin bir sabab b-n keyinchalik undan judo tushgani g‘amu iztiroblari ayni g‘azalda ochiq va teran aksini topgan:

Aylamang bekasligimni ta’n, bir kun bor edi
Menda ham bir nozanin chobuksuvor, ey do‘stlar.

N. L.ning “Bila o‘ynar” radifli g‘azalidan ilhomlanib ham ohorli g‘azal yaratadi.

L.:

So‘zlarda qachonkim ko‘zi qoshi bila o‘ynar,
Har go‘shada yuz ming kishi boshi bila o‘ynar.

N.:

Zulfung ochilib, orazi diljo‘ bila o‘ynar,
Hindubachaye sho‘xdurur, su bila o‘ynar.

G‘azal va tatabbu’ning vazni (hazaji musammani axrabi makfufi maqsur (– – V \ V – – V \ V – – V \ V – –) va radifi bir xil bo‘lsa-da, qofiya tartibi farq qiladi. Mazmunan ham L. g‘azali oshiqona, N.niki orifona. L. g‘azali 5, N. g‘azali 7 baytdan iborat.

N.ning qator g‘azal va baytlarida ham L.ning goh bevosita, goh bilvosita ta’sirini kuzatamiz. Jumladan, “Ustina” radifli g‘azalining quyidagi baytida L. mubolag‘a san’atini haddi a’losiga yetkazib, yor hajrida to‘kkan ko‘z yoshlari daryoga aylangani, binobarin, Jayhun (Amudaryo) ustida uy qurib bo‘lmagani kabi, mahbubaning ham shoir ko‘nglida vatan tutmaganiga ajablanmasa ham bo‘ladi deydi:

Gar vatan Lutfiy ko‘zunda tutmading, yo‘qtur ajab,
Ev qo‘pormog‘liq erur dushvor Jayhun ustina.

Bu bayt N.ning mashhur “Qora ko‘zum” g‘azali maqta’sini yodga soladi:

Qaro ko‘zum, kel-u mardumlig‘ emdi fan qilg‘il,
Ko‘zum qarosida mardum kibi vatan qilg‘il.

“Ey qora ko‘zlik sevgilim, insoniylik shevasini ko‘rgizib qoshimga kelu qorachiqlarim kabi ko‘zim ichida vatan tut”.

Ma’lumki, 2 kishi yuzma-yuz turganidagina ular bir-birining qorachig‘ida aks etadi. Biror kishining ko‘z qorachig‘ida vatan tutish, ya’ni doimiy aks etish u-n esa bir umr uning yonida turish, boshqacha aytganda, u b-n birga yashash kerak. Baytdagi ma’shuqaning oshiq ko‘zida vatan tutishi haqidagi ibora L.ning bevosita bo‘lmasa ham, bilvosita ta’siri ekanligi shubhasiz.

N. va L. ijodida qator mazmuniy mushtarakliklar ham ko‘zga tashlanadi. Ma’lumki, ma’shuqa avval bir nigohi b-n oshiq ko‘nglini ag‘darto‘ntar qiladi-yu, keyin muhabbati b-n uni qayta obod qiladi. Jumladan, N. mashhur bir baytida “Avvaliga ko‘nglim mamlakatini yakson qilding-u keyin unga suv quyib, urug‘ qadading”, – deb lutf etadi:

Tiyg‘ ila paykonlaring yetti ko‘ngul
bo‘lg‘och xarob,
Suv quyub tuxm ekting, ul kishvarni
vayron aylagach.

Bu bayt L.ning: “Ey husn xazinasi, ko‘nglimning uyini buzding-u sira uni obod qilmading – mening bu vayronamga bir nazar solsang-chi!” – degan bayti b-n ichki bog‘liqlikka ega bo‘lib ko‘rinadi:

Ko‘nglum evini buzding-u hargiz
imorat qilmading,
Ey husn ganji, bir nazar sol bori
bu vayronima.

Muazzam forsiy adabiyotni har tomonlama keng va chuqur bilgan N. o‘zigacha bo‘lgan turkiy adabiyotdan yetarlicha qoniqmaganligi tabiiy. Shuning u-n L.ning ba’zi baytlarini (Diqqat qiling: bir butun g‘azallarini emas!) ta’b ahli qoshida o‘qisa bo‘ladi deydi. Shunday ekan, uning bu buyuk zamondoshining g‘azallariga muxammas va musaddaslar bog‘lashi o‘ziga xos e’tirofi ekanligi shubhasiz.

Muayyan g‘azalga muxammas yoki musaddasi bog‘lanishidan maqsad unda ifodalangan fikrni rivojlantirish, to‘ldirish va yangidan yangi qirralarini ochish, tashbeh-u timsollar shodasini ohorli va go‘zal badiiy kashfiyotlar halqalari b-n yanada kengaytirishdan iborat bo‘ladi. Jumladan, L.ning “Ustina” radifli g‘azali nihoyatda shuhrat tutib, o‘zbek she’riyatida butun boshli tatabbu’lar silsilasining vujudga kelishiga sabab bo‘lgan. N. ushbu g‘azalga musaddas bog‘lar ekan, salafi g‘azalida ifodalangan fikrlarni izohlash, to‘ldirish, yangi ma’no qirralari b-n boyitish orqali yana bir badiiy barkamol she’rni dunyoga keltiradi. M-n, quyidagi baytida L.: “Go‘zallar dastidan bechora ko‘ngil qancha jafo chekishi mumkin – o‘zi bir qatra qondan iborat yurakka shuncha ham ofat yog‘iladimi?”, - deb mubolag‘a qilsa, N. tomonidan qo‘shilgan misralarda ana shu ofatlarga sabab bo‘lgan go‘zalning ta’rifi va u tufayli ko‘ngilga yuzlangan balolar birma-bir ko‘rsatiladi. Musaddas bog‘langan baytda “Ko‘ngil” so‘zining radifga chiqarilishi va unga urg‘u berilishi bandning ta’sir kuchini yanada oshirgan. Ma’lum bo‘lishicha: “O‘sha Chin ohusi oshiq ko‘nglini ovlashni ko‘ngliga tugdi-yu, bu hatto sherni ham tiz cho‘ktiruvchi ishq oldida ko‘ngil mag‘lub bo‘lib, qonga botdi; g‘amgin ko‘ngil har bir sanamdan bir jabru jafo chekadi, oqibat ularning zulm-u sitamlariga chidolmay aql-u dinni tark ayladi; axir, miskin ko‘ngil go‘zallar dastidan qachongacha jafo chekadi – bir qatra qonga shuncha ham jafo bo‘ladimi?”:

To ko‘ngul saydig‘a qo‘ydi ul g‘azoli Chin ko‘ngul,
Bo‘ldi sherafkanlar a’zosi aro xunin ko‘ngul,

Baski tortar har sanamdin bir jafo
g‘amgin ko‘ngul,
Qildi javridin alarning tarki aql-u din ko‘ngul,

Necha cheksun xo‘blar ilgidin jafo
miskin ko‘ngul,
Munchamu ofat kelur bir qatrayi xun ustina!

Bu yerda Chin ohusi go‘zal mahbubaning sifati sifatida kelyapti. Ma’lumki, mushk beradigan chiroyli ohular Chinda bo‘ladi. Ko‘rinadiki, N. tomonidan qo‘shilgan misralar L. baytining o‘ziga xos ochqichi, nazmiy sharhiday xizmat qilgan.

Adabiy ta’sir keng qirrali hodisa bo‘lib, u faqat zohiriy emas, ayni paytda botiniy ko‘rinishlarga ham ega. Jumladan, L.ning N.ga ta’siri ham faqat vaznu qofiya radifda emas, balki til, uslub, ifoda va tasvirda ham, so‘z, fikr, ma’no va badiiyatda ham namoyon bo‘ladi.

L. N.gacha bo‘lgan turkiy she’riyatning eng zabardast namoyandalaridan edi. N. ham turkiy shoirlardan faqat unga yuksak baho berib, faqat uni e’tirof etadi. Yosh Alisherning turkiyda qalam tebratishi va shoir sifatida shakllanishida uning ilhombaxsh ta’siri beqiyos. Xususan, N.ning ilk lirikasida bu ta’sir yorqin ko‘rinadi. Aslida butun “X.M.” devonlar turkumida ayni ta’sirning u yoki bu darajadagi izlarini ko‘ramiz.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4 жилдлар. – Т., 2011; Лутфий. Девон. Гул ва Наврўз. – Т., 1965; Лутфий шеъриятидан. – Т., 1985; Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Т., 1948; Açilov E. Nevayi ve Mevlana Lütfi // Ali Şîr Nevâyî’nin eserleri ve kültürel etkileri. – Ankara: Başkent Üniversitesi, 2023; Зариф Ҳ. Лутфий ва Навоий // Фозиллар фасоҳати. – Т., 1969; Қайюмов П. Тазкираи Қайюмий. – Т., 1998; Ҳайитметов А. Темурийлар даври ўзбек адабиёти. – Т., 1996; Эркинов С. Лутфий // Ўзбек адабиёти тарихи. 5 жилдлик, 1-жилд. – Т., 1977; Эркинов С. Лутфий // Буюк сиймолар, алломалар. 2 китоб. – Т., 1996; Эркинов С. Лутфий (Сўзбоши) // Лутфий. Девон. Гул ва Наврўз. – Т., 1965; Аҳмадхўжаев Э. Сўзбоши // Мавлоно Лутфий шеъриятидан. – Т., 1990; Ҳаққулов И. Лутфий // ЎзМЭ. 5-жилд. – Т., 2003.*

E.O.

LU’BAT (ar.) – 1. O‘yinchoq, qo‘g‘irchoq. Qo‘g‘irchoqqa o‘xshagan go‘zal shakl. 2. Sanam, but. 3. Go‘zal, chiroyli mahbuba. 4. O‘yin, o‘ynamoq; xursandchilik qilish. 5. Hiyla, nayrang. 6. G‘alati narsa, a’juba.

Lu’bati Chin – Chin (Xitoy) go‘zali.

Lu’bati Tiroz – Tiroz go‘zali.

Lu’batboz – qo‘g‘irchoq o‘ynovchi; nayrangboz, hiylagar.

Lu’batakboz – nayrangboz.

N. she’riyatida but L.ning bir ko‘rinishi sifatida tasvirlanadi:

Barcha bazm ahlig‘a lo‘batboz ishining hayrati,
Kelturub hayrat manga har lahza ul
Chin lo‘bati...

Garchi lo‘bat birla but bir-birdin ermaslar yiroq,
Vahki, lo‘batlar aro ul but erur jon ofati.

Ad.: *Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик, 3-жилд. – Т., 2011; Ғиёс ул-луғот. Жилд 2. – Душанбе, 1988; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. – Т., 1984.*

A.A.

LU’BATI CHIN I – Chin qo‘g‘irchog‘i (go‘zali). “S.I.” dostonidagi Chin xoqoni Iskandarga tuhfa qilgan kanizak. Chin xoqoni Iskandarga ko‘pdan ko‘p tortiqlar qatorida 2 ajoyib tuhfa jo‘natadi: biri – sehrli ko‘zgu, ikkinchisi – L.Ch. U husn-u jamolda tengsiz, aql-u kamolda yetuk, soz chalish-u qo‘shiq aytishda nodir. Ikkinchi fazilati – u chaqqon va dovyurak, harb ishida mohir bo‘lgan.

Ki: “Husn ichra xurshidi tobon erur,
Yana Zuhra yanglig‘ xushalhon erur.

Bular borcha bir yon-u bir yon bu –
Ki, maydon aro bordurur kinajo‘”.

Iskandar Chin oyinasiga mahliyo bo‘lib, Chin go‘zaliga parvo ham qilmaydi.

Qo‘lidin bu ko‘zgu yiroq ketmadi –
Ki, ko‘zgu chiroylig‘ni yod etmadi.

Ayol bo‘lishiga qaramay, harb ishiga qiziqishi, va hatto, bu borada mohirligi Iskandarga xush kelmaydi. Shu u-n unga sira iltifot ko‘rsatmasdi. L.Ch. esa shoh nazariga tushib, muhabbatini qozonish u-n qulay fursat poylardi.

Mag‘ribni fath etib, Rumga qaytayotgan jahongir sherday kuchli vahshiy maxluqlar makon tutgan biyobonga duch keladi. Mahalliy aholining iltimosiga ko‘ra, u bu maxluqlarga qarshi jang qiladi. Yakkama-yakka kurashda vahshiylardan biri o‘rtaga chiqib, Iskandarning ishongan 13 ta pahlavonini yengadi. Ular orasida Boriqi Barbariy, Ra’d, Kahqaro degan yengilmas bahodirlar bo‘lib, barchasi dushmanga asir tushadi. Vahshiyga qarshi kurashga hech kimning yuragi dov bermay turganda qo‘shin safidan bir kishi ajralib chiqib, jahongirning oldiga keladi va undan ijozat tilab, maydonga tushadi hamda mahorat, abjirlik va hiyla evaziga vahshiylar shohini mag‘lub etib, asir oladi va Iskandarning oyog‘i ostiga keltirib tashlaydi. Uni afv etish evaziga Iskandar o‘zining qahramonlarini qaytarib oladi. Bu b-n Iskandar qo‘shinini muqarrar mag‘lubiyatdan saqlab qoladi. Bu erkakcha kiyingan o‘sha Chin go‘zali edi. Jangdan keyin Iskandar uni huzuriga chorlab, o‘zini tanitishini so‘raydi. Yuzidan niqobini olganda Chin xoqoni tuhfa qilgan kanizak ekanligi ma’lum bo‘ladi. Unga qoyil qolgan Iskandar L.Ch.ni haramiga oladi. Shohning e’tiborini o‘ziga qaratish maqsadida yurgan qiz niyatiga yetadi.

Mag‘ribni zabt etib, Rumga qaytayotganida, Iskandar faqat L.Ch. b-n bo‘ladi:

Bo‘lub shoh matlub-u marg‘ubi ham,
Ne matlub-u marg‘ub, mahbubi ham.

N. bu b-n kuch katta va qo‘pol gavdada emas, balki aql va tadbirda degan fikrni ilgari suradi. Mislsiz jasoratli, abjir, obdan toblangan, harb sirini o‘rgangan, aqlli va tadbirli bu qiz aynan mahorat va abjirlik va aql-u tadbir b-n o‘zidan bir necha barobar katta va qudratli vahshiyni asir oladi.

L.Ch. badiiy obraz sifatida shoir g‘azallarida ham uchraydi. M-n:

Lo‘bati Chin gar tilar xoqon, ne tong,
gar royi hind,
Sevdi ersa bir malohat shevalik gar royni.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т., 1976.*

E.O.

LU’BATI CHIN II – Chin go‘zali, she’riyatda, umuman, go‘zal, husn-u latofatda tengsiz ma’shuqa. “H.A.” dostonining “Aflok hay’ati shikoyatidakim..” deb nomlanuvchi o‘n to‘rtinchi maqolatida dahrning insonga yetkazayotgan doimiy zulm-u sitamini va bu jarayonda muttasil hiyla-nayrang, fitna-fujur uyushtirishini ayovsiz fosh etar ekan, shoir charxning ustamonligi va lo‘ttibozligi haqida so‘z ochib, quyidagi misralarni bitadi:

...Chunki bezab huldi barindek ani
Huld nekim, lu’bati Chindek ani.

N. lirik asarlarida ham bu obrazga maftun etuvchi go‘zal ma’shuqa ma’nosida murojaat etgan. “F.K.” devonidan o‘rin olgan g‘azallarning birida quyidagi bayt uchraydi:

Lu’bati Chin gar tilar xoqon, netar, gar royi hind
Sevdi ersa bir malohat shevalik garroyni.

“B.V.” devoniga kiritilgan g‘azalda shoir bu obraz b-n bog‘liq so‘z o‘yini ishlatadi:

Barcha bazm ahliga lu’batboz ishining hayrati,
Kelturub hayrat manga har lahza ul chin lu’bati.

Matla’ning birinchi misrasida “lu’batboz” so‘zi o‘z lug‘aviy ma’nosida (“qo‘g‘irchoq o‘ynatuv-

chi”, “nayrangboz...”) kelsa, ikkinchi misradagi “chin lu’bati” go‘zal ma’shuqani anglatadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 3-4-жилдлар. – Т., 2011. Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011.*

A.A.

LUQMON (a.s.) – N. “T.M.A.” Luqmonning Kayqubod zamonida ham, Kaykovus zamonida ham ayrim payg‘ambarlar b-n birga yashagani, Fishog‘urs, Jomosb va Paylaqus kabi hakimlar uning shogirdi bo‘lgani haqida ma’lumot berib o‘tgan. “Farhangi Dehxudo”da uning asli habash bo‘lgani va Dovud (a.s.) zamonida yashagani aytilgan. Xalq ichida Luqmoni Hakim o‘simliklar tilini biladigan mo‘jizaviy tabib sifatida tilga olinsa ham, N. uning tabibligini biror joyda aytib o‘tmagan. Uni ba’zilar hakim, ba’zilar payg‘ambar degan.

L.ning nomi Qur’onning “Luqmon” surasida tilga olingan va uning o‘g‘liga beshta nasihati keltirilgan. Ba’zi manbalarda esa Tangri taolo uni payg‘ambarlik va hakimlik o‘rtasida xabarchi qilgan, deyiladi. N.ning e’tiroficha, “Aniqki, Biz Luqmonga hikmat ato etdik... (“Luqmon” surasi, 12-oyat) uning sha’niga nozil bo‘lgan. Shuning uchun payg‘ambarlik qatorida unga hikmat ham nasib qilgani ham ehtimoldan xoli emas. Uning aytishicha, rangi qora bo‘lib, Dovud (a.s.) bilan suhbatlar qilgan. L. avval qul, so‘ngra ozod bo‘lgani va shundan keyin g‘aroyib voqealar sodir etgani haqida turli rivoyatlar bor. L. – Sharq xalqlari orasida buyuk hakim sifatida mashhur bo‘lib, Qur’oni Karimda ham donishmand sifatida tilga olingan. “Qisasi Rabg‘uziy”da keltirilishicha, Luqmon Dovud alayhissalom davrida yashagan habashiy bir qul edi. L.dan ko‘pgina hikmatli so‘zlar qolgan. N. ulardan ba’zisini keltirib o‘tgan. Keltirilishicha, L. Allohga duo qilib, uch ming yil umr so‘ragan va duosi ijobat bo‘lgan. Uning aytishicha, to‘rt ming hikmatli so‘z mag‘zini to‘rt so‘z bilan ifodalagan va ikkitasini har bir odam doim esda saqlash kerak: birovga qilgan yomonligini va boshqaning unga qilgan yaxshiligini. Keyingi ikkitasini unutish lozim: birovga qilgan yaxshiligini va birovning unga qilgan yomonligini. Sharqda L.i Hakimning yuz nasihati bir necha bor fors-tojik va o‘zbek tillarida toshbosma va qo‘lyozma holida tarqalgan. Axloqshunos olim Muhammad ibn Ya’qub ibn Miskavayh (936-1030) odob-axloq tarixiga oid “Jovidoni xirad” kitobining bir bobini “Luqmoni Hakimning o‘g‘liga nasihati” mavzusiga bag‘ishlagan.

“X.M.”da biror marta L.ning nomi tilga olinmaydi. “X.”ning “S.S.” dostonida uning hakimligiga ishorat qilib, bir o‘rinda: “Hikmat ayturg‘a yaxshiroq Luqmon”, desa, “S.I.”da L. b-n bog‘liq ikkita ibratli hikoyani keltiradi: birida L.ning bir vayronaga kirib yashashi va undan bunday joyda yashash sababi so‘ralganda, bergan hakimona javoblari, dunyoga hirs qo‘ymasligining boisi va hokazolar haqida naql qilingan. Ikkinchi hikoyatda Luqmoni hakimdan bir odam, “buncha ilmni kimdan o‘rganding”, deb so‘raganida, johil odamlardan o‘rgangani, chunki unday odamlarning ishi maqbul bo‘lmagani uchun teskarisini qilgani bayon qilinadi.

“T.A.H.”da L. payg‘ambarlar qatorida ham, mashhur hakimlar jumlasida ham tilga olinadi. “Aning so‘zlaridindurkim, to‘rt ming so‘z yig‘ibturlar”, deb ta’kidlagan N. L.ning ana shu hikmatlaridan namuna sifatida quyidagilarni keltiradi: “Ul deb turkim, – “Borcha yukni torttim, bu ranjdin og‘irroq yuk ko‘rmadim va borcha lazzatni tottim, ofiyatdin chuchuk sharbat totmadim”. Andin so‘rdilarkim, – “Na nimadurki, – foydasi borcha xaloyiqqa tayyor?” Dedikim: “Yomonlarning yo‘qlug‘i!”

N.ning “M.Q.” asarida ham L.ning “bir qul” bo‘lgani, “hikmat va nubuvvat” bilan yuksak martabaga erishgani aytilgan.

N. L.ning hayotiy faoliyati va donishmandligidan axloqiy va falsafiy fikrlarini bayon qilishda unumli foydalangan.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. – Т., 2011; Абдуғафуров А. Навоий ижодида сатира. – Т., 1972; Ислом. Энциклопедия. – Т., 2004; Нуралиев Ю. Луқмони ҳаким. – Душанбе, 1991; Нормуҳаммад Мирзо. Луқмони Ҳаким. – Т., 2004.*

S.R., B.R.

"LUQMON hikoyatikim..." – "S.I." dostoni tarkibidagi mustaqil mundarijali she'riy hikoyatlardan biri. Dostonning dunyoning bevafoligi, hayotning o'tkinchiligi xususida bahs yurituvchi yakunlovchi boblaridan biriga ilova etilgan bu hikoyatda Luqmonning "jahon ayshidin" kechib, xaloyiqdan uzoqda bir vayrona burchagini o'ziga makon etib, uzoq umrini yolg'izlik va qarovsizlik ranj-u mashaqqatlarida o'tkazganligi bayon etiladi. Bunday yashashning sababini so'ragan kishiga donishmand: "Zararni daf' etish niyatida vayronani o'zimga vatan qildim. Ya'ni, meni g'am-tashvish girdobiga solmasin, deya boylikka mayl-rag'bat ko'rsatmadim. Hayotdan ko'z yumib, yo'qlikka qadam qo'yishda davron, hatto bir buzuq vayronani ham tortib oladi. Jahondin, uning aysh-u ishrati, mol-u dunyosidan saqlangan kishining hayotlik ranj-u kulfatlaridan qutilishi ham oson ko'chadi", – deb javob beradi.

... Dedi: – Donish ahlig'a aylanmadim,
Bilikni bilur eldin o'rganmadim.

Jahon ilmi bukim, manga yod erur,
Anga borcha jahl ahli ustod erur.

Nekim qildi johilki, – erdi yomon,
Tutub aksin, toptim, yomondin amon!

Bu asar N.ning hikoyatnavis sifatida ham katta badiiy mahoratiga, mo'jaz she'riy hikoyatlar yaratish san'atiga yaqqol dalil bo'la oladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8 жилд. – Т., 2011.*

A.A.

LUQMON SARAXSIY – "N.M." asarida maxsus zikr etilgan shayxlardan biri. N. bu asarida Xoja Abdulloh Ansoriyga ishora orqali L.S. haqida quyidagi naqlni keltiradi. "Shayx (Ansoriy – A.A.) debdurki, bir kecha xonaqoh eshigi bog'liq erdi va darveshlar yetib erdilar. Pir shayx Abulfazl Hasan bila suffa qirog'ida o'lturub erduk va maorifda so'z o'tadur erdi. Bir masala mushkul bo'ldi. Luqmonni ko'rdukki, xonaqoh tomidin uchub bizning qoshimizg'a tushti va ul masalani aytti. Andoqkim, ishkol raf' bo'ldi. Yana uchub xonaqoh tomidin chiqdi. Shoyad bu balandparvozlig'lar jihatidin Luqmong'a parrandalig' ismi qo'yulub erdi ekin".

"M."dagi maktublardan biri ana shu naqlga ishora etuvchi mana bu to'rtlik b-n boshlanadi:

Xazoni hajr aro qoldim yiroq bahorimdin,
Yururman itdek ulub ayru shahriyorimdin.

Istaram Luqmon kibi kasb aylasam parrandalik,
To yetib ul ostong'a zohir etsam bandalik.

Ad.: *Алишер Навоий. Муншаот. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

A.A.

"LUG'ATI NAVOIY" – hijriy 1051 (melodiy 1673-yil) yilda Rajab ibn Muhib Ali Shomlu tomonidan tuzilgan. Asarning asli Tehronda Sepahsolor kutubxonasida saqlanmoqda. Ushbu o'zbekcha-turkcha lug'atning hajmi 70 bet. Lug'atda so'zlar arab alifbosi bo'yicha joylashtirilgan. Lug'at 18 bobdan iborat. Har bir bobdagi so'zlar Sharq lug'atchiligi an'anasiga binoan uch qism: maftuha, maksura va mazmumadan iborat. Qomusda eng ko'p so'zlar o'zbek tiliga xos ا – alif, ب – be, ت – te, ى – yoy harflariga keltirilgan. Izohlanuvchi so'zlarga misollar N.ning "X.M." va "X." asarlaridan olingan.

Lug'at abushqa so'zi b-n boshlanadi:

ابوشقه – avrat eridur shuy ma'nosina bir baytda kelur, bayt:

Bir yondin o‘g‘ul g‘am-u shikanji,
Bir yondin abushqa dard-u ranji.

Ismlar bosh kelishikda:
موز - muz
bayt:

Berib nisbatda qor-u muzga payvand,
Etib rangin aning kofuri monand.

Fe’llar masdar shaklida izohlangan:
اسراماق – saqlamoq hirosat va himoyat ma’nosinadur, bayt:

Gul-u shamshodek osibi zamondin
asrag‘il, yo Rab,
Ul oyning xirman husnin xazondin
asrag‘il, yo Rab.

So‘zlar, asosan, bir ma’nosi b-n izohlangan:
بيليك – bilu ya’ni ilm demakdur, bayt:

Keturdilar hakimi nuktadonni,
Bilik birla jahon ichra jahonni.

Ayrim so‘zlar arabiy va forsiy kalimalar b-n ifodalangan. Quyida barcha so‘zi arabcha jumla bilan izohlangan:
بارچه – jumla demakdur, bayt:

Barchaning boshi uzra o‘lmaq toj,
Senga toj etdi laylat ul-me’roj.

O‘zbekcha aqsum forscha pushaymon b-n izohlangan:
اقسوم – pushaymon demakdur, bayt:

May ichsang o‘lmag‘il aqsumki piri dayr dedi,
Ki bu ish o‘ldi bizning dayr aro gina yozuq.

Omonimlar Sharq lug‘atchilik an’anasiga binoan bir lug‘at maqola ichida berilgan. Chunonchi, mumtoz o‘zbek tilidagi arig‘ (sug‘orish inshooti) va arig‘ (toza) so‘zlari bir lug‘at maqolada berilgan.

اريغ – arig‘, ya’ni pok demakdur va su ariqina daxi derlar, bayt:

Arig‘i ichra ushoq toshi agar inju erur,
Toyiri umrung uchun dona suv topti laqab.

Grammatik ma’lumotlar lug‘at maqola ichida berilgan. Chunonchi yolg‘on ma’nosidagi o‘truk so‘zi izohida uning *-gina* va *-g‘ina* qo‘shimchalari bilan ishlatilishini quyidagicha izohlaydi:
اتروك – yalan demakdur durug‘ ma’nosina o‘trukkina yalanjaq demakdur *-gina* lafzi odoti tasdig‘dur kofi ajamiyla talaffuz o‘lunur va gohi g‘ayn ila *-g‘ina* daxi derlar, bayt:

Mehr ila har va’dakim qildi bari o‘trukkina,
Qahr ila tahdidni dillarg‘a bari ching‘ina.

Ali Shomlu so‘zlar orfografiyasini aniq ko‘rsatish maqsadida turli grammatik terminlar ishlatadi.
“L.N.”da ishbo’ atamasi cho‘ziq ma’nosida ishlatilgan. Ali Shomlu o‘lub so‘zida lomdan keyingi u ni cho‘zib *u:* shaklida talaffuz qilinishini quyidagicha tushuntiradi:
...bu baytda o‘lub lafzi ishbo’ ila o‘lu:yub demakdur, bayt:

Ey Navoiy o‘lmakim anglab ul a:yning kuyida,
Itlari bir dam o‘lub bir lahza turay bu kecha.

Imola atamasi orqali *e* va *o‘* unlilari ko‘rsatilgan. Lug‘atchi ايريكماك – so‘zini erikmak shaklida talaffuz qilinishini shunday izohlaydi:
ايريكماك – imola ila talaffuz o‘lunur...
Bayt:

Bir kuni erikub mahi muaddab,
Tushti boshig‘a havoyi maktab

“L.N.”da *k* harfi kofi arabiy:
ايكين – kofi arabiyla ekin demakdur...
g harfi kofi ajamiy atamasi orqali ko‘rsatilgan. Chunonchi kichraytirish qo‘shimchasi *-gina* qo‘yidagicha izohlangan:
كينه – lafzi odoti tasg‘irdur, kofi ajamiyla talaffuz o‘lunur.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 6-7-8-жилдлар. – Т., 2011.*

E.U.

“LUG‘ATI CHIG‘ATOYI VA TURKI USMONIY” – Shayx Sulaymon Buxoriy tomonidan tuzilgan. 1881-y.da Istanbuldagi “Mehron” matbaasida nashr qilingan.

Kitob 340 sahifadan iborat. Muqaddimada (1-7 bet) lug‘atning yozilish sababi, tuzilishi, manbalari, maqsadi haqida bayon qilingan. Kitobining 8-11-betlarida avtobiografik she’riy asar – 186 misrali “Manzumayi chig‘atoy” berilgan. Ushbu muqaddima va lug‘atdagi 29 bayt Sulaymon Buxoriyning “Naqshiy” taxallusi b-n ijod qilganini ko‘rsatadi. 12-20-betlardagi “Qavoid”da chig‘atoy tilining grammatik xususiyatlari, uning boshqa turkiy tillarga o‘xshash va farqli tomonlari ko‘rsatilgan. “Qavoid”dan so‘ng asarning lug‘at qismi boshlangan bo‘lib, arab alifbosi bo‘yicha joylashtirilgan.

Undagi jami so‘zlar 6667 ta leksik birliklardan iborat. Izohdan so‘ng N., Bobur, Husayn Bayqaro, Ogahiy, Komil, Munis, Zavqiy, Nodira kabi turkman va ozarbayjon shoirlarining asarlaridan misollar keltirilgan. Lug‘atda N. asarlaridagi juda ko‘plab so‘zlar izohlangan. Ularning 400 dan ortiqrog‘iga shoir asarlaridan baytlar keltirilgan. M-n, “ot” so‘zi quyidagicha berilgan:

Ot – asb, od, nom, shuhrat, nang.

Bu gulshan ichraki, yo‘qtur baqo guliga sabot,
Ajab saodat erur chiqsa yaxshilik bila ot.

Sulaymon Buxoriy “L.Ch.T.U.”da izohlashning quyidagi usullaridan foydalangan: sinonimlar yordamida; tushuntirish orqali; antonimlar bilan (zid, g‘ayr, muqobil, mustasno); etimologik ma’lumotlar yordamida; ensiklopedik usulda; leksikografik ishoralar bilan izohlashdan iborat.

“L.Ch.T.U.” so‘zlar 6 xil izohlangan. So‘z ma’nolari yaxshi ochib berilgan. Lug‘at akad. V.Radlovning turkiy tillar va lahjalar bo‘yicha tuzgan mashhur qomusi, E.N.Najipning “XVI asrdagi turkiy tillarning tarixiy-qiyosiy lug‘ati”, A.K.Borovkovning “Badoye’ ul-lug‘at”i, “Navoiy asarlari lug‘ati”, “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati” va boshqa lug‘atlar u-n muhim manba bo‘lgan.

“L.Ch.T.U.” mashhur lug‘at bo‘lgani uchun venger olimi Igonos Kunush 1881-y.da Turkiyaga kelib, Sulaymon Buxoriy b-n uchrashadi. U bu lug‘atni nemis tiliga tarjima qilib, 1902-y. Budapeshtda nashr ettiradi.

“L.Ch.T.U.”ning leksikasi boshqa lug‘atlardan quyidagi xususiyatlariga ko‘ra farqlanadi: “L.Ch.T.U.” esa XII–XIX asrlardagi eski o‘zbek adabiy tilida ijod etgan 100 dan ortiq o‘zbek shoirlar asarlari, folklor asarlari – o‘zbek xalq dostonlari, qo‘shiqlari, maqollari, topishmoqlarida hamda jonli o‘zbek shevalarida qo‘llaniluvchi so‘zlar aks etgan; eski o‘zbek tili leksikasiga bag‘ishlangan o‘nlab lug‘atlar yaratilgan bo‘lsa-da, ularning asosiy qismi o‘zbekcha-arabcha, o‘zbekcha-forscha lug‘atlardan iborat, “L.Ch.T.U.” esa ikki turkiy til – chig‘atoy (o‘zbek) va usmonli turk tillariga bag‘ishlangan; eski o‘zbek tili leksikasiga bag‘ishlangan; “Abushqa”, “Badoyi’ ul-lug‘at”, “Sangloh” kabi lug‘atlarning barchasi qo‘lyozmada bo‘lgani u-n ularda xatolar mavjud hamda bu lug‘atlar tor doirada tarqalgan, “L.Ch.T.U.” esa xatolarsiz chop etilgan hamda ko‘pchilik bu lug‘atdan foydalangan; kitobdagi so‘zlarning asosiy qismini, ya’ni 93 foizini turkiycha so‘zlar tashkil etadi.

Lug‘atni tuzishda Sulaymon Buxoriy 2000 dan ortiq so‘zga N.ning “X.M.”, “X.”, “L.T.”, “M.Q.”, “M.L.”, “M.A.” kabi asarlaridan olingan bayt, ruboiy va boshqa materiallar misol sifatida berilgan. Shu sababli bu lug‘at N. asarlari tilini o‘rganishda, uning asarlariga lug‘atlar tuzishda muhim manba sifatida xizmat qilmoqda.

Ad.: *Дадабоев Х., Носиров Э., Ҳусанов Н. Проблемы лексики староузбекского языка. – Т., 1990; Ҳусанов Н., Шайх Сулаймон Бухорийнинг ҳаёти ва ижодий мероси. – Т., 2009.*

Nish.H.

LUG‘ON – tog‘ nomi. N. “N.M.”ning Is’hoq binni Ibrohim Hammol (q.s.) zikrida yodga oladi va shayxning shu tog‘da yashashini ta’kidlaydi: “Mashoyix akobiridin erdi. Maqomi Lug‘on tog‘i erdi”.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

B.R.

LUHROSP – kayoniylar sulolasiga mansub hukmdor. Firdavsiy “Shohnoma”si obrazlaridan biri. O‘g‘li bo‘lmagani u-n Kayqubod naslidan bo‘lgan inisining o‘g‘li L.ni Kayxusrav taxtga o‘tkazgan edi. Lekin saroy ahli va amaldorlar uning shoh bo‘lishiga ko‘nmaydilar. U 120 yil hukmronlik qiladi. Odil va xalqparvar hukmdor bo‘lib, mamlakatda tinchlik-osoyishtalik o‘rnatadi. Ozarbarzin nomli otashkada bino qiladi. Gushtosp va Zarir degan 2 o‘g‘li bor edi. Kaykovusning yaqinlariga yaxshi yerlarni berganiga chidolmagan Gushtosp otasidan arazlab Rumga ketadi. Rum qaysari unga qizini berib, o‘ziga kuyov qiladi. Otasidan o‘ch olish u-n Rumdan qo‘shin tortadi. L. o‘z xatosini anglab, yoshi o‘tganini bahona qilib, toj-u taxtini unga topshiradi. O‘za esa Balx otashkadalaridan birida go‘shanishinlik ixtiyor qiladi. N.ning yozishicha, “Gushtosb ba’zi bilod fathig‘a mashg‘ul erkanda, Arjosb kelib, Balxni olib, Luhrosbni o‘lturdi”.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 2. – Душанбе, 1989.*

E.O.

LO‘LI – dunyoning turli mamlakatlarida tarqalgan holda yashovchi xalq. Markaziy Osiyo aholisi tarkibida ham mavjud. O‘rta asrlarda, shu jumladan, N. davrida Movarounnahr, Xuroson, Iroq hududlarida o‘ziga xos turmush tarzini saqlagan holda yashagan.

N. “T.M.A.” asarida L.lar tarixiga oid ayrim fikrlarini bayon etgan. Uning yozishicha, L.larning kelib chiqishi asli Hindistondandir. Bahrom Go‘r ularni o‘z yurtidan ko‘chirib olib kelgan. Bu haqda “T.M.A.”da shunday deyiladi: “Va to‘rt ming uyluq sozanda va go‘yanda va raqqos va ahli tarab Hindistondin ko‘churub olib keldiki, holo bu mamolikda lo‘lilar alar naslidindur”. L.larning bu mintaqalarda tarqalishi Bahrom Go‘rning faoliyati bilan bog‘liq ekani haqidagi fikrning asosli-asossizligi haqida bir narsa deyish qiyin, lekin N.ning L.larning asl vatani Hindiston ekani borasida bildirgan fikri ilmiy haqiqatga xilof emas. L.larning tili ustida olib borilgan tadqiqot natijasida bu tilning hind tiliga qarindosh ekanligi aniqlangan va olimlar L.larning asl vatani Hindiston, degan xulosaga kelganlar.

L. etnonimi N. lirikasida ham ko‘p uchraydi. N. ko‘pincha o‘zining barcha insonlarning tengligi, xususan, muhabbatda yoki do‘stlikda kishining qaysi toifa yoki xalqqa mansubligining ahamiyati yo‘qligi haqidagi fikrlarini badiiy ifodalashda L. obrazidan foydalanadi. M-n:

Kim ko‘ngul sayd etsa, lo‘li bo‘lsa
kim tut mug‘tanam,
Aytman arlot yo barlosdin mirzoda top.

Yoki:

Men tilab husn, vale shoh tilab aslu nasab,
Menga lo‘li bila hind-u , anga qo‘ng girot-u qiyot.

Ko‘p hollarda N. mahbubaga nisbatan L.vash (lo‘liga o‘xshash) sifatini qo‘llaydi:

Ey Navoiy, jism aro jon rishtasin tutqil aziz.
Kim, bori lo‘livashim la’bi uchun asbob erur.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус- сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2011. Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; ЎзМЭ. 5-жилд. – Т., 2003.*

Q.E.

M

“MABONI UL-LUG‘AT” (“Til asoslari”) – “Sangloh”ga ilova sifatida yozilgan, mumtoz o‘zbek tili bo‘yicha Mirza Muhammad Mahdixon tomonidan ta’lif etilgan birinchi grammatikaga oid kitob. N. asarlari asosida 1759–60-yy. da yozilgan. Ushbu asar so‘zboshi, muqaddima, tavsif va olti mabno(asos)dan iborat. So‘zboshida olim “Sangloh”ni tuzish sabablari haqida shunday yozadi: “Tangri yorlaqagur bu haqir kamina Muhammad Mahdi yoshlik chog‘larimdan boshlab balog‘at mulkining va so‘z san’atining o‘tkir amiri Amir Alisher Navoiy she’rlarini kamoli shavq bilan o‘qishga kirishganimda, uning so‘zlarini tushunishga kuchli istak paydo bo‘ldi. Shundan so‘ng, qisqasi, qiyin so‘zlarni yig‘ib, shu so‘zlarning ma’nolariga bag‘ishlab bir kitob yozish orzusi xotiramdan kechdi. Alisher Navoiy asarlaridagi so‘zlarning qiyinligi va mushkulligiga ko‘ra “Sangloh” (“Toshloq”) deb ataldi”. Muqaddimada Mahdixon ushbu grammatika o‘n ikki jild she’riy: 1. “G‘.S.”, 2. “N.Sh.”, 3. “B.V.”, 4. “F.K.”, 5. “H.A.”, 6. “F.Sh.”, 7. “L.M.”, 8. “S.S.”, 9. “S.I.”. 10. “L.T.”, 11. “A.”, 12. “N.J.” va to‘qqiz jild nasriy: 1. “M.Q.”, “M.A.”, 3. “Xam.M.”, 4. “N.M.”, 5. “T.A.H.”, 6. “T.M.A.”, 7. “M.N.”, 8. “M.”, 9. “V.” asarlari asosida tuzilganligini ta’kidlaydi.

Tavsifda mumtoz o‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlari qisqacha bayon qilingan. Olimning yozishicha, mumtoz o‘zbek tilida fe’l shakllari asosan ikki: *“q”, “g‘”* va *“k”*lik shakllaridan iborat. Tarkibida *“q”, “g‘”* bo‘lgan fe’llarga *“q” va “g‘”*lik, *“k”*lik fe’llarga esa *“k”*lik affikslar qo‘shiladi. Birinchi mabnoda mumtoz o‘zbek tilidagi masdarlar *-maq* va *-mak* qo‘shimchalari asosida tuzilishi ko‘rsatilgan. Bu yerda, shuningdek, fe’lning o‘tgan, hozirgi-kelasi zamon shakllari haqida ma’lumotlar berilgan. Ushbu mabnoda hozirgi va o‘tgan zamon sifatdoshlari haqida ham ma’lumotlar bor. Mahdixon degil va degin buyruq fe’li haqida yozar ekan, o‘zbeklar ko‘pincha ikkinchi shakldan foydalanishlarini ta’kidlaydi. *Barmag‘in, almag‘in* tarkibida fe’lning inkor shakli *-ma* ishlatilganligini qayd etadi. Ikkinchi mabnoda fe’l yasovchi *-di, -ding, -duq, -g‘an, -gan* kabi affikslar b-n yasalgan so‘zlar haqida bahs yuritiladi. Uchinchi mabno ikki bobdan iborat. Birinchi bobda kishilik olmoshlari (men, sen, biz), ikkinchi bobda ko‘rsatish olmoshlari (bu, munga, muni) bayon qilingan. To‘rtinchi mabno uch bobdan iborat. Birinchi bobda kelishik affikslari, ikkinchi bobda kuchaytiruv ma’nosini ifodalovchi *-ap, -sap (ap-ag‘, sap-sarig‘), -mu (chin-mu)* qo‘shimchalari chegara ma’nosini anglatuvchi *-g‘acha*, *-cha* qo‘shimchalari haqida ma’lumot berilgan. Kishi ma’nosidagi *-ov* qo‘shimchasini birdan o‘ngacha bo‘lgan sonlarga qo‘shilishi (birov, ikov, uchov...) haqidagi ma’lumotlar til tarixi u-n muhim ahamiyatga ega. Makon ma’nosini ifodalovchi turkiy *-log‘* qo‘shimchasi (qishloq, yayloq) forsiy *-zor*, *-ston*ga sinonim ekanligi ta’kidlanadi (gulzor, kuhiston).

Beshinchi mabnoda Mahdixon *ola olmoq, bora olmoq, qila ko‘rmoq* kabi fe’llar haqida fikr yuritib, ular tarkibidagi birinchi komponent keyingi so‘z bilan birikkach, o‘z ma’nosini yo‘qotishini ta’kidlaydi.

Bu ma’noda *qabaq bag‘lamoq-ayblamoq qattiq ko‘zluk, sovuq yuzluk, ko‘z tutmoq* iboralar haqida ma’lumot berilgan. Oltinchi mabno imlo qoidalariga bag‘ishlangan. “M.L.”da unlilarning

sifat xususiyatlari haqida qimmatli ma’lumotlar saqlangan. Olim N. tilida ikkita lablangan unli biri oddiy *u*, ikkinchisi cho‘ziq *u:* mavjudligi haqida ma’lumot beradi. U bugungi *tuz* so‘zi XVII–XVIII asrlarda cho‘ziq *u*: b-n *tu:z* shaklida talaffuz qilinganligini ta’kidlash maqsadida ishbo’ atamasini qo‘yadi. Mahdixon eski o‘zbek tilida uchta *a* borligini ta’kidlab, oddiy *a* ni alif, qisqa *a* hoyi havvaz, cho‘ziq *a:* alifi mamduda termini orqali ko‘rsatadi. *A:*lar olmoshida so‘z boshidagi *a*: cho‘zg‘isini alifi mamduda termini b-n ko‘rsatadi.

Lug‘atshunos N. o‘z asarlarida alida, ancha so‘zlarini oxirida *alif* b-n ham *hoyi havvaz* b-n yozganligini ta’kidlaydi.

“M.L.”da ikkita *i* unlisi qayd qilingan. Oddiy *i* kasra, cho‘ziq *i:* ishboli kasra atamasi orqali ko‘rsatilgan. Lug‘atshunos *ti:maq* fe’lida ishboli kasra - cho‘ziq *i:* ishlatilishini ko‘rsatib o‘tadi.

Asarda undoshlar haqida ham muhim ma’lumotlar mavjud. Olim bir xil yoziluvchi undoshlarni bir-biridan farqlash u-n maxsus terminlar qo‘llaydi: *ch – jimi ajamiy, j – jimi arabiy, b – boi arabiy, p – poi porsiy, kofi arabiy, g – kofi porsiy* va boshqalar.

Vaqt o‘tishi b-n harflar ustidagi nuqtalar o‘chib ketishini hisobga olib, muhmala-nuqtasiz, mu’jama – nuqtali terminlarini ishlatadi: sini muhmala – nuqtasiz *s*, shini mu’jama nuqtali *sh. T – harfi toi qarashat, z – zoi havvaz, r – roi muhmala, te – toi hutti, q – qofiy, k – kofiy, y – yoyi xutti* atamalari b-n ko‘rsatilgan.

Mahdixonning so‘zlar etimologiyasi haqidagi qarashlari diqqatga sazovor. U *oydin* so‘zi *oy* va *tun*, *ishton* so‘zi *ich* va *to‘n*dan so‘zlari qo‘shilishidan hosil bo‘lganligini ta’kidlaydi.

“M.L.”da mumtoz o‘zbek lug‘atlarida qayd qilinmagan so‘zlar uchraydi. Mahdixon shoir asarlaridagi so‘zlarning morfologik jihatdan tahlil qilar ekan, xalq tilidan juda ko‘p misollar keltiradi: *tuzloq – tuzli yer, indakchi – kishilarni mehmonga chaqiruvchi, bitikchi – yozuvchi, yasanchoq – o‘ziga oro beruvchi, olinchoq – ot peshonasiga taqiladigan ziynat, o‘kunduruk – paxta yigiruvchilar tayoqchasi, aldog‘ – aldash, tiluk – teshik, yurush – yurish, turush – sabot, yo‘lum – suvdan o‘tadigan joy, so‘kunch – dashnom, qo‘rqinch – xavf, yasal – qator, saf, yig‘in – yig‘ilmoq, qudurmaq – devona bo‘lmoq, gandaramak – sasimoq, buzilmoq, ogudamak – uyqusiramoq, mungramoq – g‘amgin bo‘lmoq, gumarlamak – tayinlamak.* Ushbu so‘zlar mumtoz o‘zbek tili lug‘at boyligini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Xullas, mumtoz o‘zbek tili bo‘yicha birinchi tuzilgan ushbu grammatika tilshunoslik tarixini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

Ad.: *Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Санглоҳ. Мирзо Маҳдиҳон. “Мабони ул луғат”. Форс тилида.*

E.U.

MAB’US (ar.) – jo‘natilgan, yuborilgan, vakil etilgan; elchi. Diniy manbalarda payg‘ambarlar zimmasiga yuklatilgan vazifa, missiyani anglatgan. N. asarlarida bu so‘z asosan payg‘ambarlarning xalqqa yuborilishi ma’nosida kelgan bo‘lib, adib mazkur kalimani “T.A.H.” asarida 9 marta faqat payg‘ambarlar b-n bog‘lab qo‘llaydi. M-n, Solih (a.s.) zimmasiga Samud qavmini hidoyat qilish, ularni to‘g‘ri yo‘lga solish vazifasi yuklatilgani haqida shunday deyiladi: “Alarning hidoyat tanbehi uchun Solih (a.s.) Mab’us bo‘ldi”. Boshqa bir o‘rinda Yunus (a.s.) Suy elini tuz yo‘lga da’vat etish uchun vakil etilgani xabar beriladi: “Ani Tengri taolo Mab’us qilib, Suy eliga yubordi”.

“T.A.H.”da N. keltirgan qaydlar mutolaasidan ma’lum bo‘lishicha, qaysi qavm yo‘ldan ko‘proq ozgan, fisq-u fujurga, gunohlarga botgan bo‘lsa, Tangri ularning hidoyati u-n muayyan payg‘ambarlarni M. qilgan. Jumladan, Ilyos (a.s.) M. bo‘lishidan oldin Bani Isroil ana shunday holatda edi. Asarda yozilishicha, ular Muso (a.s.) dinini va Tavrotni butunlay unutgan, turli butlar yasab, ularga sig‘ina boshlagandilar. Bu hol Ilyos (a.s.)ning M. qilinishiga sabab bo‘lgan. Bundan tashqari, payg‘ambarlar biron-bir

qavmning, xalqning duosi, iltijosi tufayli ham M. qilingan. Shuningdek, “T.A.H.”da dalolat qilinishicha, Zul-Kifl (a.s.)dan keyin Odiylar g‘olib bo‘lib, Bani Isroilga ko‘p jabr-zulm qilgan. Shunda qavm Tangridan ularga bir peshvo yuborishini tilagan va Tangri Ashmuil (a.s.)ni M. qilgan: “Zul-Kifl o‘tkandin so‘ngra necha qarng‘acha Bani Isroil orasida payg‘ambar M. bo‘lmadi. Va Odiy g‘olib bo‘lib, alarning ahvolig‘a ko‘p futur yuzlandi va qatl va asir va torij ko‘rdilar… Qavm tazarru’ qilib, o‘zlarig‘a bir peshvo tiladilar ersa, Tengri taolo Ashmuil (a.s.)ni M. qildi”.

Shuningdek, N. payg‘ambarlarning necha yoshda M. qilinganiga ham urg‘u bergan: “Va Iso (a.s.)ni debdurlarkim, o‘n yetti yoshida M. bo‘ldi. O‘ttiz uchida osmong‘a chiqdi”.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. – Т., 1980.*

Q.E.

MAVLONO ABULVOSE’ (t.y. va v.y.n. – XV asr) − fors-tojik shoiri. Xurosonning Nur viloyatida tug‘ilib, shu yerda tahsilini kamolga yetkazgan. “M.N.” va “Muzakkiri ahbob”dagi ma’lumotlarga ko‘ra, o‘z zamonining fozillaridan bo‘lib, xushbayon va tozafikr shoir bo‘lgan. N. uning insho fanida mohirligi, lekin ancha yengiltabiatli kishi bo‘lganligi, shuning u-n ahli zurafo hazil-u mutoyibasiga nishon ekanligi haqida yozadi. She’rlari turli bayozlar va tazkiralar orqali yetib kelgan. Ularda hajv, zamona tanqidi, shikoyat ruhi, hasbi hol xususiyati ustun. Jumladan:

Jahon bemador astu bee’tibor,
Majo‘ e’tibor az in bemador.

Tarj.: Jahon bemador-u bee’tibordir − bu bemadordan e’tibor kutma.

Zabon zi so‘zi darunam zabonaye boshad,
Sharari ohi man az vay nishonaye boshad.

Tarj.: Tilim ichimdagi alanganing uchidir, ohim uchquni undan bir nishonadir.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ҳасанхожа Нисорий. Музаккири аҳбоб (И.Бекжон тарж.). − Т., 1993; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988.*

E.O.

MAVLONO ABDUSSALOM SHEROZIY (XV asr) – N.ga zamondosh bo‘lgan tabib. N. Mashhadda kasal bo‘lib, yotib qolganda, M.A.Sh. unga qaragan. M.A.Sh. bilimdon va mohir tabib bo‘lgan. N. “H.P.M.” asarida uni shunday ta’riflaydi: “Va Mavlono Abdussalom Sheroziy (rahmatullohki, ul zamonning mohir hakimi va hoziq tabibi erdi – bu zaifga muolij erdi”. M.A.Sh. N.ni muvaffaqiyat b-n davolagan va so‘ngra bemorlik asoratlarini daf’ qilish u-n dalk (massaj) buyurgan. U Pahlavon Muhammad b-n musohib bo‘lgan. Ular va tabib Alo ul-mulk doimo birga bo‘lib, tib faniga oid bahslar qilganlar. M.A.Sh.ning tug‘ilgan va o‘lgan yillari ma’lum emas. N. “H.P.M.”da uning ismini tilga olar ekan, rahimulloh so‘zini qo‘shadiki, bundan mazkur asar yozilgan vaqtda (1492) M.A.Sh. ning tirik emasligi ma’lum bo‘ladi. M.A.Sh. haqida boshqa ma’lumotlar mavjud emas.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳолоти Паҳлавон Муҳаммад. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

Q.E.

MAVLONO ABDULQAHHOR IS’HOQ SAMARQANDIY (t.y. n. – 1492/93, Hirot) – olim, shoir. Mashhur muarrix Abdurazzoq Samarqandiyning ukasi. Aka-ukalarning barchasi ilm-u adabda yetuk, zamonasining fozil kishilaridan edi. M.A.I.S. insho va hisob fanlarida ham mohir bo‘lgan. Qofiya va aruz ilmi bo‘yicha “Aruzi Humoyun” (“Humoyun aruzi”) kitobini

tartib bergan. Hirotda yashaganidan N. “M.N.” tazkirasida donishmandligi, Hirotning xushta’b kishilari jumlasidan ekanligi haqida ma’lumot beradi. “Mavlononing xayoli kimyogarlikka tushib, ko‘p nima zoye’ qildi va hech nima hosil qila olmadi. Ko‘p o‘t puflaganidan modda qulog‘i sari inib, kar bo‘lub erdi. Ammo xo‘b abyoti bor edi. Mir Xusravning javobida bu matla’ aningdurkim”:

Rashkam oyad on chi bar dilho xadangi yor kard,
Tiri o‘ro g‘ayr xo‘rd-u dar dili man kor kard.

Tarj.: Yor kiprigi o‘qining dillarga yetishidan rashkim keladi, chunki uning o‘qi boshqalarga tegadi-yu, jarohati mening ko‘nglimda qoladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10-жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988.*

E.O.

MAVLONO ABDULHAY – tabib. Dastlab N. qurdirgan “Dor ush-shifo”da bemorlarni davolash b-n mashg‘ul bo‘lgan. Xoja Ahror Valiy xastalanib qolganida, N. topshirig‘iga ko‘ra, Samarqandga kelib, uni davolagan. Shundan keyin N.ning unga hurmati va homiyligi yanada ziyoda bo‘lgan. Ko‘p vaqtini N. huzurida o‘tkazgan. Xondamir “Habib us-siyar” asarida uni G‘iyosiddin Aziz va Ulomulk kabi mashhur tabobat ahli qatorida zikr etib, uchalasining ham saroyda mansablari va nufuzlari baland bo‘lgani va amir unvoni b-n sarafroz etilganlarini xabar qiladi. “Makorim ul-axloq”da esa shoir umrining oxirgi damigacha M.A. yonida bo‘lgani va Mavlono Shamsiddin Muhammad Giloniy b-n birga uning tomiridan qon olganliklari haqida yozadi. Pahlavon Muhammadning tobi qochib qolganda ham N. huzurida bo‘lgan M.A. va Mavlono Nuriddinlarni shoshilinch uning huzuriga jo‘natadi, lekin vaqt o‘tib, bemor bandalikni bajo keltiradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳолоти Паҳлавон Муҳаммад. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985.*

E.O.

MAVLONO ABU TOHIR BADAXSHIY (XV asr – Badaxshon – Hirot) – shoir. Yoshligida tahsil u-n Hirotga kelib, shu yerda muqim bo‘lib qolgan. N.ning “M.N.” tazkirasida ma’lumot berishicha, uning madrasasida o‘qigan. Baytlaridan namunalar turli tazkiralar orqali yetib kelgan. “Odam” ismiga bog‘langan muammosi shular jumlasidandir:

Oshiqonro dil zi hijronash base faryod kard,
To ki omad az safar on moh dilho shod kard.

Tarj.: Oshiqlarning dili hijronda cheksiz faryod qildi. Ul oy safardan qaytdi-yu, dillarni shod qildi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

M.A.

MAVLONO ABULXAYR (t.y.n. – v. 1482/83) – taniqli tasavvuf shayxi. N. zamondoshlaridan. “N.M.”da u haqda shunday yozadi: “Oti Ahmaddur. Hofiz Shamsuddin Saraxsiyki derlar, sohibi vaqt kishi ermish, aning o‘g‘lidur. Va kichik yoshda Qur’onni hifz qilib erdi. Va Shayx Zaynuddin Xavofiy (r.t.) silsilasida suluk qilur erdi. Yaxshi tab’i va yaxshi ixtiloti bor erdi. Bu faqir Hazrat Maxdumiy n.m.n. jamoatida aning keynida namoz qilibmen. Qur’onni xo‘b va muassir o‘qur erdi. Yoshi yetmishga yetganda, sakkiz yuz sakson yettida olamdin o‘tti. Va qabri Hirot shahrining sharqiy haddida Shoh Abulg‘ays go‘ristonida durur”.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

E.O.

MAVLONO ALI OHIY (XV asr, Mashhad) – fors-tojik shoiri. Nizomiyning “Xamsa”si javobida bir necha masnaviy yozgan. Jumladan, “Layli va Majnun” tatabbu’sida “Xayol va Visol” masnaviysini yaratgan. Lekin N. “M.N.” tazkirasida yozishicha, ularni “Xamsa” darajasida deb bo‘lmaydi. Iste’dodi kuchli bo‘lmaganidan bu dostonlar shuhrat qozonmagan. N. “Xayol va Visol” dostonidagi quyidagi bayti b-n go‘yoki g‘ayb ilhomi orqali o‘z iste’dodiga baho bergan deydi:

She’re, ki buvad zi nukta soda,
Monad hama umr yak savoda.

Tarj.: Nozik ma’nodan xoli she’r butun umr bo‘yi bir qoralik bo‘lib qoladi (yoki bir qoralama bo‘lib qoladi).

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 2. – Душанбе, 1988.*

E.O.

MAVLONO ALI SHAHOB (XV asr, Turshez) – shoir. Boysung‘ur Mirzoning mulozimi bo‘lgan. Usluban ravon, badiiy jihatdan yetuk she’rlar yozgan. O‘z davri shoirlarining peshvosi hisoblangan. O‘g‘li ham *Sirriy* taxallusi b-n she’rlar bitgan. N. “M.N.” tazkirasida uning ijodidan namuna sifatida quyidagi matla’ni keltiradi:

Chun parda az rux chun oftob bardori,
Ba jonu dil kunad mushtariy haridori.

Tarj.: Quyosh kabi yuzingdan pardani ko‘tarsang, Mushtariy (bu so‘zning xaridor ma’nosi ham bor) sayyorasi (Yupiter) jon-u dildan sening haridoring bo‘ladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

S.G‘.

MAVLONO ANISIY (Taxallusi; to‘liq ismi: Mavlono Qutbiddin Anisiy Iroqiy, XV–XVI asr, Iroq – Hirot) – shoir. Iroqda tug‘ilib, yoshligida ilm tahsili u-n Hirotga kelgan va shu yerda umrining oxirigacha yashagan. Asosan, qasida va g‘azal yozgan. Xusrav Dehlaviyga izdoshlik qilib, uning 40 g‘azaliga javob aytgani u-n N.ning tahsiniga sazovor bo‘lgan. G‘azallari, asosan, ishq-u muhabbat mavzusida bo‘lib, sodda va ravonligi b-n ajralib turgan. “M.N.” tazkirasida N. uning o‘rtamiyona bir ijodkor bo‘lib, boshqalarning she’rini o‘zlashtirib olish b-n mashhurligi haqida ma’lumot beradi va jumladan, quyidagi baytini ham men aytdim, deb da’vo qiladiki, bu matla’ kimniki bo‘lmasin, bu yerda bahslashib o‘tirmayman, deydi:

Garchi mejo‘yad dilam doim visoli yorro,
Yor mejo‘yad ba rag‘mi man dili ag‘yorro.

Tarj.: Agarchi mening dilim hamisha yor visolini izlasa-da, yor mening qasdimga raqibning ko‘nglini ovlaydi.

Mana bu baytni ham unga nisbat beradilar:

Boz in dili shikasta xayoli visol kard,
Chize xayol kard, ki natvon xayol kard.

Tarj.: Bu majruh ko‘ngil yana visol xayolini qildi – hech qachon xayolga keltirib bo‘lmaydigan narsani xayol qildi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988.*

E.O.

MAVLONO ASIRIY (XV asr, 2-yarmi – XVI asr boshlari) – shoir. Xondamir “Xulosat ul-axbor”da ma’lumot berishicha, N. tarbiyati va homiyligidan bahramand bo‘lgan iste’dod ahllaridan. Muammo aytishga mohir, N.ning e’tirofiga sazovor va inoyatiga musharraf bo‘lgan. N.

“M.N.” tazkirasida uni hirotlik ekanligini aytib, endi o‘zini ko‘rsatib kelayotgan salohiyat sohibi, deb ta’riflaydi: “Ammo nazmi hanuz shuhrat tutmaydur va she’rida masal ravishi bor”. Ijodidan namuna sifatida quyidagi matla’ni keltiradi:

Shudam az yor judov-u ba balo uftodam,
Chi balo bud, ki az yor judo aftodam.

Tarj.: Yordan judo bo‘ldim-u baloga duchor bo‘ldim, bu ne balo ediki, yordan judo bo‘ldim.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985.*

S.G‘.

MAVLONO AHMADIY (XV–XVI asr, Hirot) – shoir. Yetuk salohiyat sohibi bo‘lgan. Tabiatida hazil-mutoyiba kuchliligidan Hirot ulug‘lari uning dilkash suhbatini havas qilganlar. M.A.ning o‘zi ham ular b-n yaqin munosabatda bo‘lganligidan qo‘rqmay, hazil-huzul qilavergan. N. Abdullo Ansoriy mozori jorubkashligi (supuruvchiligi)ni qabul qilganida aytgan bir matla’si mashhur:

Ey miri kaminoyat-u bisyornozi man,
Kozurgohi-yu shayxi aloqa darozi man.

Tarj.: Ey kam inoyatli va nozi ko‘p amirim – yuvg‘uvchilik va shayxlik bir-biridan uzoq kasblar hisoblanadi.

Bu paytda mozorning haqiqiy shayxi Mir Kamoliddin Husayn Gozurgohiy edi. N. esa mozorning faxriy shayxi unvonini olishi munosabati b-n bu yerda bir marosim o‘tkazadi. Bu yerdagi ko‘plab obodonchilik va quruvchilik ishlariga bosh bo‘ladi. Maqbara sharqida bir xonaqoh bino qiladi. M.A.ning “gozurgohlik” va “shayxlik” so‘zlari vositasida hazil-mutoyiba qilgani shundan.

Quyidagi bayt ham uning ijodidan:

Ogah nayi az nolayi shabhoyi asiron,
Faryod az in xobi garone, ki tu dori.

Tarj.: Asirlarning tundagi oh-u nolalaridan xabaring yo‘q – sening bu qattiq uyqung dastidan dod!

Ad.: *Гиёсиддин Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Т.. 2015; Ҳасанхожа Нисорий. Музаккири аҳбоб. – Т., 1993.*

E.O., N.J.

MAVLONO BAQOIY (1535, Balx). N.ning “M.N.” tazkirasida keltirilishicha, M.B. “kamongarlikka mashhur va o‘zini muammoiyliqqa ham shuhrat berdi... So‘ngra she’r ayta boshladi. Ammo g‘arib xayollar qilur, ammo tarkibni resh bog‘lar”.

H.Nisoriyning o‘zidan so‘rab aniqlashicha, “uning “kamongarlikka mashhur” bo‘lishiga quyidagi voqea sabab bo‘lgan ekan: “Bu sohada bizning san’atimiz yo‘q. Bu shikastaga mazkur laqabni mana bu sababdan taqqanlar. Bir paytlar Muzaffar barlos bilan Hirotga borgan edik. O‘shanda kamongarlik do‘koniga kirib, ustalar orasida bir go‘sha tutib, o‘z kamonimizga go‘shagir qo‘yayotgan edik va bu ishlar bilan bo‘lib, amiri kabir Alisherning yo‘li shu yerdan tushib, kimyoasar nazarlarini menga solajak va g‘aflat sababli ro‘y bergan beadabligimiz uchun malomat o‘qig‘a qilajaklarini bilmay qolibman”. “Mullo Baqoiy juda xushsuhbat va odobli, kamtar kishi edi. Ubaydulloxon xizmatiga yaqinligi ham bor edi. Forsiy, turkiy tillarda yozgan she’rlari ko‘p va juda yaxshi hamdir. “Noz-u niyoz” nomli masnaviy bitgan”, - deb ma’lumot beradi u yana.

H.Nisoriy “bu g‘azalni juda xo‘b aytgan” deb, bir matla’ keltiradi:

Haridori jahon budan ba savdoyash
namearzad,
Musaxhar kardani olam ba
g‘avg‘oyash namearzad.

Tarj.: Jahonga xaridor bo‘lish uning savdosiga, olamni qo‘lga kiritish esa g‘avg‘osiga arzimaydi.

M.B. Sulton Ahmad Xuzraviya maqbarasiga dafn etilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ҳасанхожа Нисорий. Музаккири аҳбоб. – Т., 1993; Донишмандлар туҳфаси. – Т., 2009.*

E.O.

MAVLONO BILOL – N.ga zamondosh shoirlardan. “M.N.”da keltirilishicha, xushta’b va xushsuhbat kishi bo‘lgan. Ham forsiy, ham turkiyda birday mahorat b-n qalam tebratgan. Hirotda vafot etib, Xojayi Toq qabristonida dafn etilgan. Quyidagi turkiy matla’ uning iste’dod darajasiga guvoh bo‘la oladi:

Jon-u ko‘nglumni jafo o‘ti bila kuydurdungiz,
O‘ylakim, kul bo‘ldum-u mendan
ko‘ngul tindurdungiz.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

M.A.

MAVLONO BURUNDUQ (taxallusi; to‘la ismi: Mavlono Bahriddin Burunduq, XV asr) – shoir. Asli buxorolik bo‘lib, Nadimiy Buxoriy nomi b-n ham tilga olinadi. Umarshayxning o‘g‘li shahzoda Boyqaro xizmatida bo‘lgan. N. va Davlatshoh Samarqandiylarning ma’lumot berishlaricha, dilkash, xushta’b, hazilkash, hozirjavob kishi edi. Shoirlar va atrofidagi odamlar uning o‘tkir tilidan hayiqib, ustod deb hurmatini joyiga qo‘yganlar. Hajviyotdan boshqa she’rlarda ham o‘zining kuchli iste’dodini namoyon etgan.

Shahzoda Boyqaro Balx hokimi etib tayinlanganda, M.B.ni huzuriga chorlab, 500 dinor siylov berishni buyuradi. Lekin parvonachi unga 200 dinor yozadi. Shunda u bir qit’a yozib, turkiyda 500 dinor deb 200 dinorni aytadimi, deb kinoya qiladi. Qit’ani o‘qigan Boyqaro kulib yuboradi va: “Yo‘q, turkiyda 500 dinor deb ming dinorni aytadi”, deb unga ming dinor tuhfa etadi.

“M.N.”da ijodidan namuna sifatida quyidagi matla’si keltiriladi:

Labi shirini tu bo tungi shakar memonad,
Duri dandoni tu bo iqdi guhar memonad.

Tarj.: Sening shirin labing shakar idishining og‘ziga, durday tishlaring gavhar shodasiga o‘xshaydi.

S.Rahmon Davlatshoh tazkirasida keltirilgan bir g‘azal va bir qit’asini o‘zbek tiliga tarjima qilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Давлатшоҳ Самарқандий. Тазкират уш-шуаро. – Теҳрон, 1388 (ҳ.-ш.).*

S.G‘., E.O.

MAVLONO BURHONIDDIN (XV asr, Hirot) – muammonavis shoir va olim. N.ning yozishicha, o‘z davrining mashhur fozillaridan biri, katta mavqe va mansabga ega e’tiborli zot, so‘z ustasi bo‘lgan. U N. b-n doimiy ravishda yaqin aloqada bo‘lib, turli masalalarni birgalikda hal qilishgan. Mavlononing ulug‘ shoir bilan do‘stligi N.ning 1469-y.i Husayn Boyqaro tomonidan muhrdorlik vazifasiga tayinlanishi munosabati bilan she’riy ta’rix yozishidan boshlangan. Bu haqda “M.N.”da o‘qiymiz: “Bu faqirg‘a podshoh muhr taklifi qilg‘onda ta’rix aytib erdikim, bag‘oyat xub voqe’ bo‘lib erdi. Ammo chun faqirning ta’rifiki, nafs ul-amrdin g‘ayri voqe’dur, lozim kelib erdi, bitilmadi va lekin asl misrasi budurkim:

Torixash in bud, ki: “Alisher mo‘hr zad”.

M.B.ning mazkur “ki Alisher mo‘hr zad” (ki Alisher muhr urdi) tarixnomasi, N.ning aytishicha, ajoyib bir sarguzasht b-n bog‘liq. Bu o‘rinda o‘n yil oldingi emas, o‘n yil keyingi voqea, ya’ni

N.ning ukasi Darvish Ali 1482-y.da muxrdorlikka tayinlanganda, M.B. o‘sha sanaga bag‘ishlab ta’rix bitib, tarixni “Darvish Ali mo‘hr zad” (Darvish Ali muhr urdi) deganida “Darvish Ali mo‘hr zad” o‘rniga “ki Alisher muhr zad” iborasi o‘sha mazmunni ifodalab, o‘n yildan keyingi sanaga mos keladi. Bu tavoruddan hazrat N. ajablanadi va uning Mavlono hayotidagi g‘aroyib karomatlaridan biri deb hisoblaydi.

N. tomonidan M.B.ning Hirot aslzodalaridan bo‘lib, donishmand, xushta’b va muloyim tabiatli kishi ekanligi ta’kidlangan. U o‘sha zamon she’riyatining eng mushkul janrlaridan bo‘lgan muammoda ustod darajasiga yetib, Jomiy va N. kabi muammo san’atiga oid “Javohir ul-asmo” nomli risola ham bitgan. N. uning Abulqosim Boburga bag‘ishlab yozilgan va “Shoh Bobur” ismi chiqadigan ta’rixining oxirgi baytini o‘z tazkirasida keltiradi.

N.ning ma’lumotiga ko‘ra, M.B. 1469 va undan keyingi yillarda Hirot madrasalarida mudarrislik kasbi bilan shug‘ullangan. Uning darslarida, N.ning maxsus ta’kidlashicha, ko‘plab talabalar qatnashganlar. N. o‘z davrida boshqalar qatori, bu mashhur mudarris, shoir va donishmand kishi b-n ham yaqin do‘stona munosabat o‘rnatib, uning hisobsiz ta’rif-tavsifiga musharraf bo‘ladi.

M.B. N.ning Astrobodga hokim qilib yuborilishi munosabati bilan ham ta’rix bitgan:

On Miri Nizomiddin Alisher
Avsof berun zi haddi taqrir.

Chun kard qabul boz amorat,
Ta’rix shud “amorati Mir”.

Tarj.: Amir Nizomiddin Alisherning sifatlari ta’rifga sig‘maydi. Amirlikni qayta qabul qilgani uchun ham ta’rixi “amorati Mir” (“Amirning amirligi”) bo‘ldi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9 жилд. – Т., 2011; Абдуллаев А. Навоий ва Мавлоно Бурҳониддин // ЎТА, 2004, №1; Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий: манбаларнинг қиёсий-типологик, текстологик талқини. – Т., 2011.*

E.O.

MAVLONO VAYSIY (XV asr, II yarmi – XVI asr I yarmi) – xattot, shoir. Hirotda yashagan. Safarga chiqqanida, yo‘lda vafot etgan. Mohir xattot bo‘lib, Abdurahmon Jomiyning “Nafahot ul-uns” (Hirot sh.dagi muzeyda saqlanadi) va Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob” (Berlin kutubxonasida saqlanadi) tazkiralarini ko‘chirgan. Nozikta’b shoir ham bo‘lib, mazmunan teran va badiiy jihatdan yetuk she’rlar yozgan. N. “M.N.” tazkirasida ma’lumot berishicha: “Asru soda va go‘l kishi edi. Faqir, balki ko‘proq yoronlar taajjub qilurlar erdikim, oyo ul bu nav’ sodalig‘ bila nazm nechuk aytur erkin, ammo g‘azallari yomon ermas va devoni ham bordur. Bu matla’ aningdurkim:

Raftam ba sayri bog‘-u tavofi bunafshazor,
Omad zi har bunafsha maro bo‘yi zulfi yor.

Tarj.: Bog‘ sayri-yu binafshazor ziyoratiga chiqdim – har bir binafshadan menga yor sochining muattar hidi kelardi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988.*

E.O., M.A.

MAVLONO DARVESHALI TABIB – Xondamir o‘zining “Xulosat ul-axbor” asarida M.D.T. to‘g‘risida shunday ma’lumot beradi: “Kasalliklarning davosini topish va kasallikka chalingan g‘ariblarni davolashga katta g‘ayratlar ko‘rsatgan bo‘lib, haqiqatdan ham tabobat ilmida yuksak cho‘qqilarga erishgan. Har doim oliy hazratning shifoxonasidagi kasallarni davolashga mashg‘uldir. O‘sha maskanga tegishli bo‘lgan vaqf mulklaridan katta foyda oladi”.

N. esa o‘zining “M.N.”da M.D.T. to‘g‘risida quyidagilarni yozadi:

“...tabobatqa mashg‘uldur va bu fanning hoziq va mohirlari aning tab’in ta’rif qiladurlar. Muolijasin ham ko‘rganlar o‘kodurlar. Tab’i ham yaxshidur. Ammo muammog‘a ko‘prak mashg‘uldur”.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ғиёсиддин ибн Ҳумомиддин Хондамир. “Хулосат ул-ахбор фи баён ал-аҳвол ал-ахёр” (“Яхши кишиларнинг ҳаётлари тўғрисида қисқача маълумотлар”) асаридан бир бўлим // Гўё Эътимодий нашрга тайёрлаган // – Кобул, 1966.*

K.R.

MAVLONO YORIY (XV asr, Balx) – shoir. N.ning “M.N.” tazkirasida ma’lumot berishicha, vazirzoda edi, biroq darvesh va ozoda kishi bo‘lgan. Faqirlik yo‘lini tutib, o‘zini riyozatlarga solgan. Natijada, ko‘zi zaiflashib, hech nimani ko‘rmaydigan bo‘lib qolgan. Yaxshigina ta’bi nazmi bor edi. Quyidagi matla’ uning qalamiga mansub:

Kasam nishoni sari mo‘y az on dahon nadihad,
Chunonbatangamazing‘am,kikasnishonnadihad.

Tarj.: Hech kim yor og‘zidan zarracha nishon berolmaydi, Bu g‘amdan shunday yomon ahvolga tushdimki, mening boshimga tushgan savdoni hech kimga ko‘rsatmasin.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

M.A.

MAVLONO JAVHARIY – (XV asr, Samarqand) – shoir. Sobunxona mushrifi (saqlovchisi) bo‘lgan. O‘sha yerda o‘zi u-n bir hujra yasab olgan. Aruzni yaxshi bilgan. “Siyar unnabiy” (“Payg‘ambar xislatlari”) asarini nazmga solgan. Quyidagi bayt uning ta’bi nazmidan:

Falak bas, ki dar mavkibash toxta,
Ba har moh na’le biyandoxta.

Tarj.: Falak otiga minib rosa chopdi, har oyga bir na’l tashlab ketdi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. Т., 2011.*

Q.E.

MAVLONO JANNATIY – xurosonlik shoir. N.ning zamondoshi. Fors tilida ijod qilgan. Ma’lum bir muddat Sulton Husayn Boyqaroning mulozimlik qilgan. Bir voqea sabab saroy xizmatidan chetlatilgan.

N. uni “M.N.”ning 3-majlisida zikr etgan. N. M.J.ning Xurosonda tug‘ilganini, aytib o‘tadi va tab’ining yomon emasligi, ya’ni bir muncha iste’dodli ekani haqida yozadi, so‘ng aql va qobiliyat orasidagi farqni keltiradi. Shu o‘rinda M.J. ni iste’dodli, lekin aqlsiz-u tolesiz kishi sifatida ta’riflaydi: “Tab’i yomon emas, ammo aqli ham yo‘qtur va toleyi ham”. N.ning ma’lumot berishicha, M.J. podshoh mulozimlik qilgan vaqtda, boshiga kulfat tushgan, lekin N. uni qutqarib qolgan: “Muddate podshoh mulozimi erdi, falokat base anga mustavli bo‘ldi, faqir ani yig‘-ishturdum”. Tazkirada M.J.ning boshiga tushgan baxtsizlik haqida batafsil fikr yuritilmagan, ya’ni o‘shanda bu odamning nima ayb qilgani ochiqlanmagan. Shunisi aniqki, N. aytganidek, aqlsizligi bois o‘zi bilmagan holda shohning g‘azabini qo‘zg‘atadigan bir ish qilib qo‘ygan yoki saroydagi fitna-ig‘volarga aralashib qolgan bo‘lishi ham mumkin. Lekin N.dek kishining o‘rtaga tushganiga qaramay, M.J.ning shoh xizmatidan quvilishi bu o‘rinda uning aybi anchayin jiddiy bo‘lganini ko‘rsatadi.

M.J.ning ijodidan namuna sifatida bir matla’-si tazkirada keltirilgan:

Ba may xo‘rdan chu soqiy sog‘ari
mayro dahan po‘shad,
Chi shud k-o‘ro ba sarpo‘she
savodi chashmi man po‘shad.

Tarj.: May ichish paytida soqiy may qadahining og‘zini yopib qo‘yadi. Unga nima bo‘ldiki, mening ko‘zim qorasini qopqoq bilan berkitib qo‘yadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик. 9-жилд. – Т., 2011.*

Q.E.

MAVLONO JUNUNIY – Xuroson shoirlaridan. Poytaxt Hirotda tug‘ilgan va umrini shu shaharda o‘tkazgan. Ko‘proq hajviy va hazil she’rlar yozgan. N. M.J. b-n Xoja Hofiz Sharbatiy o‘rtasida nizo kelib chiqqani va M.J. shu munosabat b-n hajviya yozganini qayd qilgan. Hofiz Sharbatiy o‘z davrining mashhur kishilaridan bo‘lib, she’r ham yozgan, musiqa asarlari ham yaratgan. M.J. dan farqli o‘laroq, Sharbatiy uzoq yashagan va shu sababli N. uni ko‘rgan. Sulton Abusaid halok bo‘lgach, xoja Hofiz Sharbatiy Makkaga ketgan va qolgan umrini o‘sha yerda o‘tkazgan.

N. bu ikki ijodkor o‘rtasidagi nizoning sabablari haqida ham, hajviyaning mazmuni haqida ham hech narsa demaydi, faqat uning dovrug‘ qozongani haqida xabar beradi. Uning yozishicha, M.J.ning boshqa yaxshiroq she’rlari ham bo‘lgan, lekin ushbu hajviya tufayli odamlar ularni unutganlar: “ ... xaloyiq ul hajvni yod tuttilar va yaxshiroq she’rlari bu jihatdin bartaraf bo‘ldi...”. Tazkirada M.J.ning bu she’ri keltirilmagan. N. bu holni “... ul hajv chun mashhur erdi bitmak munosib ko‘runmadi” deya izohlaydi va M.J. ijodidan namuna sifatida ushbu forsiy baytni o‘quvchilar diqqatiga havola etadi:

Ey ahli jununro ba kamandi tu zabuni.
Z-on ro‘y dar on xalqa zabun ast Jununi.

Tarj.: Ey, junun ahli sening kamandingda zabundir. Shu sababli Jununiy ham shu xalqada zabun.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 3. – Душанбе, 2004.*

Q.E.

MAVLONO KAMOLUDDIN SHOH HUSAYN (t. va v.n.) – N.ning murabbiy va muqavviyligida kamol topgan iste’dodli zamondoshlaridan biri. U haqida Xondamirning “Xulosat ul-axbor” asarida quyidagicha ma’lumot bitgan: “Mavlono Kamoluddin Shoh Husayn hol ahvolining chehrasi fazilat va bilim orasta, kamchilik va nuqsonlardan xolidir. Aql-u hushini yig‘ishtirib olgandan keyin Mavlono Shamsiddin Muhammad Badaxshiyning vositachiligi bilan olihazrat Amir Alisherning mulozamatiga yetishdi va ta’bining sofligi, zehnining o‘tkirligi tufayli uning iltifot va inoyatiga manzur bo‘ldi. Shu kunlarda ul hazrat Amir Alisherning maxsus xodimlari qatorida va yagona pir Xoja Abulvalid Ahmad mozorida shayxlik mansabidadir”.

Ma’lumotdan ko‘rinadiki, M.K.Sh.H. go‘zal insoniy fazilatlar sohibi bo‘lgan va buni N. sezgan va nihoyatda qadrlagan, uni maxsus xodimlari qatorida deb bilgan.

Ad.: *Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985.*

B.R.

MAVLONO ZAYNIY (XV asr, Sabzavor) – fors tilida ijod qilgan shoir. Sabzavorda tug‘ilgan va Sabzavordagi adabiy hayotda ishtirok etgan. Keyinchalik Astrobodga ketadi va umrining qolgan qismini mazkur viloyatda o‘tkazadi. Shu yerda vafot etgan va dafn qilingan.

M.Z.ni “M.N.” tazkirasining ikkinchi majlisida zikr qilgan. N. uni “dilpazir tab’lik kishi erdi”, – deya ta’riflaydi. M.Z.ning adabiy merosi, devoni yoki asarlari haqida ma’lumotlar mavjud emas. “M.N.”da ham bu borada hech narsa deyilmagan. N. uning ko‘proq g‘azallar yozganini ta’kidlab, fors tilidagi ushbu matla’sini misol tariqasida keltiradi:

Sanavbar to zi xizmatgorii sarvat judo monda,
Shuda devonavu jo‘lidamo‘ sar dar havo monda.

Tarj.: Sanobar sening sarving (qomating, bo‘ying) xizmatkorligidan ayrilganidan beri devonaga aylanib, sochi to‘zib, boshi havoda bo‘-lib qoldi.

N.ning qaydlari orasida M.Z.ning mashhur shoir Mir Shohiy b-n suhbat va majlislar tuzgani haqidagi so‘zlar diqqatga sazovordir. Ma’lumki, Mir Shohiy ham M.Z. singari sabzavorlik edi. U ham keyinchalik Astrobodga ketgan va o‘sha yerda vafot etgan. N. aytgan suhbat va majlislar ular hayotining Sabzavordagi davrida bo‘lgan-mi yoki Astroboddami – bu to‘g‘rida aniq fikr aytish qiyin, lekin N. so‘zlari bir masalaga aniq-lik kiritadi: bu ikki shoirning adabiy hamkorligi XV asr 50-yillarining boshlaridan avvalgi davrda bo‘lgan. Zero N. “M.N.”ning Mir Shohiyga bag‘-ishlangan qismida uning Astrobodda vafot etgani va na’shini Sabzavorga olib kelib, dafn qilganlari haqida yozadi va voqeaning otasi Sabzavorda ho-kim bo‘lib turgan paytda yuz berganini ta’kidlay-di. Bu esa 50-yillarning boshlariga to‘g‘ri keladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

Q.E.

MAVLONO ZAYNUDDIN MAHMUD (t.y.n. − v. 1519) − xattot, olim. N.ning tar-biyati va homiyligida faoliyat olib borgan. Sultonali Mashhadiyning shogirdi va kuyovi. Mirali Hiraviy qo‘lida ham tahsil olgan. Nas-ta’liq xatida benazir bo‘lgan. U ko‘chirgan Nozim Hiraviy devoni Tehron davlat kutub-xonasida, Abdurahmon Jomiy devoni Abdul Husayn Mas’ud Ansoriy majmuasida, Bahrom Mirzo va Said Ahmad Mashhadiy muraqqala-riga ko‘chirilgan 16 qit’a Sankt-Peterburgdagi Saltikov-Shchedrin kutubxonasida saqlanadi. U “Xulosat ul-axbor” (“Xabarlar xulosasi”) va “Mir’ot ul-olam” (“Olam oyinasi”) asarlari-ning muallifi ham hisoblanadi.

Ad.: *Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 2. – Душанбе, 1989; Хондамир. “Хулосат ул-ахбор”дан // Навоий замондош-лари хотирасида. – Т., 1985.*

E.O.

MAVLONO ZAMONIY – xurosonlik sho-ir. N.ning kichik zamondoshlaridan. Uning otasi Mavlono Muhammad Omiliy mashhur tarixchi Sharafuddin Ali Yazdiyning yaqin kishilaridan bo‘lgan va she’riy ijod bilan ham shug‘ullangan. N. uni “M.N.”ning ikkinchi majlisida tilga olgan. M.Z. Sulton Badiuzzamon mirzo huzurida xiz-mat qilgan. Ma’lumki, ushbu shahzoda adabiyot-ga qiziqqan, o‘zi ham she’rlar yozgan. Boshqa temuriy hukmdorlar singari Badiuzzamon ham o‘z saroyiga olimlar, shoirlar va boshqa turli hu-nar egalarini jalb qilishga uringan. Bunda uning N. tarbiyasini olgan, uning homiyligida yetishib chiqqan kishilarga alohida e’tibor ko‘rsatgani va o‘z xizmatiga olganligini alohida qayd qilish lozim. N.ning xos kishilaridan hisoblangan sho-ir Osafiy, N.ning kitobdori bo‘lgan, ayni paytda turli ixtirolar muallifi hisoblangan Mavlono Hoji Muhammad ham keyinchalik o‘z xizmatlarini Sulton Badiuzzamon huzurida davom ettirgan-lar. M.Z. garchi N.ning qo‘li ostida faoliyat ko‘r-satmagan bo‘lmasa-da, uning nazariga tushgan. Yuqorida aytib o‘tilganidek, N. uning otasini ham yaxshi bilgan. M.Z.ga Zamoniy taxallusini olishni ham N. tavsiya qilgan.

N.ning “M.N.”da bergan ma’lumotiga ko‘-ra, M.Z. dastlab Vafoiy taxallusi bilan she’rlar yozgan. Lekin u Sulton Badiuzzamon mulozimi bo‘lgani tufayli N. unga Zamoniy taxallusi mu-nosibroq, deb hisoblagan va undan taxallusini o‘zgartirishni so‘ragan. N.ning M.Z.ga taxallus borasida bunday tavsiya berishining yana bir sababi Vafoiy N.ning do‘sti va homiysi Ahmad Hojibekning taxallusi edi. M.Z. N.ning masla-hatiga amal qilib, o‘z she’rlarida Zamoniy ta-xallusini qo‘llay boshlagan. N.ning “M.N.”da yozganlarini istisno qilganda, M.Z.ning hayoti va ijodi haqida ma’lumotlar mavjud emas. Biz

uning Badiuzzamon mirzo mulozimi ekanligi haqidagi ma'lumotdan kelib chiqib, ayrim fikrlarni bildirishimiz mumkin. Ma'lumki, Badiuzzamon mirzo Astrobod, Balx viloyatlarida hokim bo'lgan. Binobarin, M.Z.ning ham hayotining muayyan davri shu shaharlarda o'tgan.

"M.N"da M.Z. ijodidan namuna tarzida ushbu bayt keltirilgan:

Ba obi dida hargiz kam nashud so'zi dili zoram,
Magar az xok taskin yobad on otashki, man doram.

Tarj.: Zor ko'nglimning kuyishi ko'z yoshi b-n kamaymaydi, mendagi bu o't magar tuproqdan taskin topadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985.*

Q.E.

MAVLONO ZEBOIY (XV asr) – shoir. Adabiy manbalarda u Abdurahmon Jomiyning zamondoshi sifatida zikr etiladi va ta'bi nozik shoir maqomida ta'riflanadi. N. "M.N." tazkirasida men uning o'zini ko'rganim yo'q, lekin she'rini eshitganman deb, ijodidan namuna sifatida bir matla'sini keltiradi:

Qomatat shevayi raftor chu bunyod kunad,
Sarvro bandayi xud sozad-u ozod kunad.

Tarj.: Qomating xirom aylaganda sarvni o'ziga banda qilib turib, yana ozod qiladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе,1988.*

E.O.

MAVLONO ZIYO (XV asr II yarmi, Tabriz – Hirot) – shoir. Ma'lumki, temuriylar davrida Hirotning ilmiy, madaniy, adabiy markaz sifatidagi mavqeyi benihoyat ortgan. Faqat Xurosonning shahar va qishloqlaridan emas, balki Fors, Iroq va Ozarbayjonning turli joylaridan, shu jumladan, qadimdan madaniyat rivojlangan Sheroz, Tabriz, Kirmon shaharlaridan, Shirvon o'lkasidan yoshlar tahsil uchun, shoir va fozillar yashash va ijod qilish uchun bu yerga kelganliklari buning yaqqol dalilidir. N. "M.N."da ularning bir qatorini, jumladan, Mavlono Xalaf, Xoja Mas'ud Qumiy, Mavlono Solimiy, Mavlono Mas'ud Shirvoniy va boshqalarni tilga oladi. M.Z. ham ana shundaylarning biridir.

Tahsil davomida M.Z. Hirotdagi adabiy hayotda ishtirok etib, shoir sifatida tanilgan va umrining qolgan qismini shu yerda o'tkazgan. N. uni "M.N."ning uchinchi majlisida zikr etgan. Tazkirada M.Z.ning "Ko'ngulga yaqin, shirin adoliq, maqbulg'ina kishidur", – deb ta'riflanishiga qaraganda, N. u b-n yaqin tanish bo'lgan. N. shuningdek, M.Z.ning kichik jussali kishi ekani va do'stlari u b-n ko'proq shu to'g'rida hazil-mutoyibalar qilishlari haqida ham yozadi. Tazkirada M.Z. ijodidan namuna tarzida keltirilgan she'rlar uning anchagina iste'dodli shoir ekanligini ko'rsatadi. Buni N. ham tasdiqlaydi va ana shu baytlarni keltirishdan oldin "tahsil asnosida she'rg'a ham ishtig'ol ko'rguzdi va yaxshig'ina she'rlar ham aytti" deb yozadi. M.Z. ijodining diqqatga sazovor jihati uning o'zbek tilida ham she'rlar yozganidir. N. uning Xalaf otiga aytilgan ushbu o'zbekcha muammosini keltiradi:

Ey durdkashlar, bodadin xoli
bo'lubtur yurtingiz.
To tutqoli xumxonadin bir go'sha siz,
bir go'sha biz.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

Q.E.

MAVLONO ZIYO TABRIZIY (t.y.n. – 1520/21, Tabriz) – shoir, olim. Yoshligida tahsil u-n Hirotga kelgan. Oti Ahmad bo'lib, Qosim

O‘rdubodiyning o‘g‘li. Shafe’iy yoki Shafiqiy taxallusi b-n ijod qilgan. N. “M.N.” tazkirasida ma’lumot berishicha, “ko‘ngulg‘a yaqin, shirinadolik, maqbulg‘ina kishi” bo‘lgan. Yaxshigina she’rlar yozgan. Ko‘plab qasidalar yaratgan, lekin ularning aksarini lug‘z va muammo janriga oid qasidalar tashkil etadi. Shunday qasidalaridan biri Husayn Boyqaroning o‘g‘li Shohg‘arib Mirzoga bag‘ishlangan va “Qasidayi shatranjiya” deb atalgan. Turli tazkira va bayozlar orqali she’rlaridan namunalar yetib kelgan. Jumladan, N. uning fors tilidagi 2 matla’si va “Xalaf” nomiga yozilgan bir muammosini keltiradi. Matla’laridan biri quyidagicha:

Ajab nabvad agar parvona imshab tarki jon karda,
Ki binad naxli umri sham bunyodi xazon karda.

Tarj.: Shamning umr daraxti xazon sari yuz tutganini ko‘rib, bu kecha parvona jonini tark etsa, ajab emas.

Som Mirzoning xabar berishicha, Hirotda o‘zining o‘tkir zehni va yetuk she’rlari b-n N. majlisiga yo‘l topib, uning e’tiborini qozonadi, siyloviga muyassar bo‘ladi.

M.Z.T.ning “Alg‘oz” (“Lug‘zlar”) va “Hall ul-muammo” (“Muammoni yechish usullari”) risolalari ham bor. “Alg‘oz” lug‘z janriga bag‘ishlangan bo‘lib, nazmda yozilgan. “Hall ul-muammo” esa Mir Husayn Nishopuriyning “Dasturi muammo” asariga javob tarzida yozilgan – u shoirning do‘stlari iltimosiga ko‘ra, 1506-07-yy. da boshlanib, 1520/21-yy.da yakunlangan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Тазкираи “Тўҳфаи Сомий”. – Теҳрон, 1347 (ҳ.-ш.); Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988; Жўраев Ж. Мавлоно Зиё Табризий // “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2014, № 1.*

E.O.

MAVLONO ZOHIDIY (to‘liq ismi: Mavlono Azizulloh Zohidiy) (XV asr) – shoir. Bobo Savdoiyning zamondoshi bo‘lgan. Amir Xusrav Dehlaviyning “Daryoyi abror” (“Yaxshilar daryosi”) qasidasiga tatabbu’ yozgan. Kotibiyning “Tajnisot” (“Tajnisot”) asariga ergashib, “Ravzat ul-oshiqin” (“Oshiqlar bog‘i”) dahnoma (o‘n noma)sini yaratgan. 1000 baytdan iborat mazkur asarining nasriy muqaddimasida ma’lumot berishicha, u 1407-y.da Hirotga kelib, 10 yil davomida tahsilga mashg‘ul edi. So‘ng Boysung‘ur Mirzo saroyiga yo‘l topib, 1417-y.da “Ravzat ul-oshiqin”ni unga tuhfa etgan. “Tajnisot” yo‘lida yozilgan bu asar, o‘z-o‘zidan tajnis va zulqofiyataynga boy. Jumladan:

Zo‘hraro chang yo rubob ki dod,
La’l dar sang, yo Rab, ob ki dod?

Tarj.: Zuhraga chang yo rubobni kim berdi, ey Xudo, tosh ichidagi la’lga bu qadar tovlanishni kim berdi?

“M.N.” tazkirasida N. “munojotda aning bu bayti yaxshi tushubdur” deydi.

“Ravzat ul-oshiqin” qo‘lyozmasining bir nusxasi Britaniya muzeyida saqlanadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988.*

E.O.

MAVLONO ZULOLIY (t.y.n. 1525, Hirot) – shoir. Otasi darveshsifat kishi bo‘lib, kalava (yigirilgan ip)furushlik qilar edi. N.ning “M.N.” tazkirasida yozilishicha: “Zehni sarchashmasidin nazmi zuloli sofi zohir bo‘lur. Bu jihatdin anga Zuloliy taxallus topildi”. Ko‘rinib turibdiki, Zuloliy taxallusini unga N. bergan.

Fozil va ma’rifatli kishi bo‘lib, Som Mirzoning xabariga ko‘ra, ko‘proq g‘azal va qasida janrlarida qalam tebratgan. Qasidalaridan birida zamondosh shoirlardan shikoyat qilgan. Jumladan:

She’r fazl-u shoir omad fozil, ammo chun tama’
Lozimi she’r ast, bezoram zi she’r-u shoiri!

Tarj.: She’r fazilat-u shoirlik fozillik sanaladi, lekin she’rdan maqsad tama bo‘lsa, bunday she’r-u shoirlikdan bezorman!

N. ham shoir ijodidan namuna sifatida bir matla’ keltiradi:

Layli uzore merasad domankashon dar xuni man,
Digar nadonam chun shavad
holi dili majnuni man.

Tarj.: Bir Layli yuzli qonim ustiga etagini tortib keladi. Bu holda telba ko‘nglimning ahvoli nima bo‘lishini bilmayman.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. –Т., 2011; Тазкираи “Тўҳфаи Сомий”. – Теҳрон, 1347 (ҳ.-ш); Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988.*

Q.E.

MAVLONO ISHQIY (XV asr) – fors-tojik tilida ijod etgan hirotlik shoirlardan biri bo‘lib, ijodiy faoliyati Abusaid Mirzo hukmronligi davriga to‘g‘ri keladi. N. o‘z tazkirasida M.I. haqida qisqacha ma’lumot keltiradi. Ma’lumki, tazkirada har bir majlis o‘z ko‘lamiga ko‘ra ma’lum bir davrni qamrab olgan bo‘lib, ikkinchi qism N.dan yosh jihatidan katta bo‘lgan, asar yozilgan paytda hayotdan ko‘z yumgan ijodkorlar ta’rifiga bag‘ishlangan. Demak, M.I. 1490-y.dan oldinroq vafot etgan. Asarda uning iste’dodli shoir bo‘lgani e’tirof qilinadi: “...hiriylik erdi va qasidani puxta aytur erdi”. M.I. o‘z davrining mashhur shoirlaridan biri bo‘lganki, Abusaid Mirzo Hirotda bunyod qilgan Oqsaroy peshtaxtasiga yoziladigan bayt uchun aynan uning she’rini tanlab oladi. N. bu haqda shunday yozadi: “Sulton Abu Sa’id Mirzo Oqsaroyni yasaganda imoratning kitobasi uchun shuarog‘a she’r buyurdilar. Imorat ta’rifida aning she’ri yaxshi tushub erdi”. Bu she’r fors tilida yozilgan, tazkirada uning matla’si keltiriladi:

In manzareki toq chu abro‘yi dilbar ast,
Az xok bar giriftayi doroyi kishvar ast.

Maz.: Peshtoqi dilbarning qoshiga o‘xshash bu joy mamlakat podshohining tuproqdan yuksaltirgan binosidir.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

Z.R.

MAVLONO KAVKABIY (XV asr) – mutasavvif shoir. Adabiy merosidan Nizomiyga tatabbu’ sifatida yozgan 5 tasavvufiy dostoni yetib kelgan: 1) “Oyina va Dil”. Mavzu va vazn jihatidan “Maxzan ul-asror”ga tatabbu’. U shoirning tasavvufiy qarashlari va fikrlarini o‘zida mujassam etgan. Fikrlari tasdig‘i u-n hikoyatlar keltiradi. 2) “Fehristi jahon” (“Jahon mundarijasi”). Bu dostonda u olamning yaratilishi, insonning paydo bo‘lishi va ilohiy ishqdan bahs yuritadi. 3) “Anvor ul-muhabbat” (“Muhabbat nurlari”). Bu “Layli va Majnun” mavzusidagi tasavvufiy doston. 4) “Abvob ul-jannat” (“Jannat eshiklari”). Bu tasavvufga oid doston bo‘lib, unda tariqatning 40 yo‘li, uni bosib o‘tishning 8 usuli haqida so‘z boradi. 5) “Taroz ul-nubuvvat” (“Payg‘ambarlik ziynati”). Nizomiy “Iskandarnoma”siga nazira bo‘lgan bu doston 2 qismdan iborat, birinchisi “Dur ul-bahrayn” (“Ikki dengiz tutashgan joyning gavhari”), ikkinchisi (“Bahr ul-durrayn” (“Ikki dur dengizi”) deb ataladi.

N. “M.N.” tazkirasida u haqda “munajjim yigitdur va o‘z fanig‘a munosib taxallus ixtiyor qilibdur”, deb yozadi va bir matla’sini ijodidan namuna sifatida keltiradi:

Be ruxash har qatrayi xun bar sari mujgon maro,
Mash’ale boshad furo‘zon dar shabi hijron maro.

Tarj.: Yor yuzisiz kipriklarim uchidagi har qatra qon hijron kechasidagi yorqin mash’alga aylandi.

Ad.: Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988.

E.O.

MAVLONO KAVSARIY I (XV asr, Buxoro – Hirot) – shoir. N.ning "M.N." tazkirasida ma'lumot berishicha, qobiliyatli, xushsuhbat, shirin so'zli, fasohat b-n ma'noli gapiruvchi donishmand kishi edi. Bir kuni o'ziga yarasha taom tayyorlayotganida, ulug'lardan biri kirib, o'tin qalabdi. Buni ko'rgan M.K.: "Ovqat pishirishda yordam qilmaki, ovqatga sherik bo'lasan", – debdi.

Quyidagi matla' uning qalamiga mansub:

Dar xayoli pistayi xandoni on bodomchashm,
Chashmayi xunest chashmi mo,
ki dorad nom chashm.

Maz.: Bodom ko'zli yorning pistadek labi xayolida ko'zimiz qon chashmasiga aylandi – uning faqat nomigina ko'zdir.

Bu yerda shoir chashm – ko'z va chashma – buloq so'zlari yordamida tajnis san'ati hosil qilgan. Shuningdek, xandon pista deganda istiora yo'li b-n lab ko'zda tutilgan bo'lsa, ko'z bodomga tashbeh qilingan. Bu esa muallifning mahoratli shoirligidan dalolat beradi.

M.K. Hirotda vafot etgan. Uning qabri Xiyobon ko'chasi boshida.

Ad.: Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.

Z.R.

MAVLONO KAVSARIY II (XV–XVI asrlar) – Xurosonlik shoir. "M.N." tazkirasining uchinchi qismida shoir haqida ma'lumot berilgan. Ma'lumki, asarning uchinchi majlisida N. yosh qalamkashlar haqida, ular tarbiyasidagi noqis jihatlarga alohida to'xtalgan. Muallif M.K. ning ham dangasalik, g'ayratsizlik kabi illatlarga moyil ekanligi haqida gapiradi: "Kichikdin beri tab'ida nazm aytur qobiliyati bor. Ammo mashg'ulluq qilmas. Xoja Osafiyning musohiblig'i davlatidindurkim, goh-gohi she'r aytur". Demak, Osafiy (q.: Osafiy) M.K.ning hayotida ham o'ziga xos mavqega ega bo'lgan. Ularning hamsuhbat do'st ekanligi shoir ijodiga ham ta'sir o'tkazgan. M.K. fors tilida ijod qilgan va uning quyidagi bayti namuna sifatida keltiriladi:

Muhtasib gar rind boshad dayr-ro dar vo kunad,
Bahri rindon boda az zeri zamin paydo kunad.

Maz.: Muhtasib agar rind bo'lsa, mayxona eshigini o'zi ochib beradi. Rindlar uchun mayni yer ostidan bo'lsa ham paydo qiladi.

M.K.ning ijod namunalari bizgacha yetib kelmagan.

Ad.: Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.

Z.R.

MAVLONO KAMOLIDDIN ABULVOSE' AN-NIZOMIY – N.ga zamondosh bo'lgan ijodkorlardan. Xondamir o'zining "Habib us-siyar" asarida M.K.A.N. to'g'risida shunday deb yozadi: (Mavlono Kamoliddin Abdulvose' an-Nizomiy) Mirzo Yodgor Muhammad voqeasi yuz bergan sana to'g'risida shunday deb yozadi:

Shud shahri safar shahid va ham "shahri safar"
Az soli shahodatash dihad xabar.

Tarj.: Safar oyida shahid bo'ldi. Buning ustiga "safar oyi" uning shahid bo'lgan yilini anglatadi. Ushbu baytdagi رفص رهش "shahri safar" iborasini abjad hisobi asosida raqamlarga o'girsak, 875 soni hosil bo'ladi. Shundan ma'lum bo'ladiki, Mirzo Yodgor Muhammad milodiy 1470/1471-y. shahid bo'lgan.

Mavlono Jaloliddin Mutahhar Boharziyning o'g'li edi. Yoshlik yillarining katta qismini ilm o'rganish bilan o'tkazib, kotiblik hamda xatlar va hujjatlar tuzish ishida katta mahoratga ega bo'ldi.

Mansur Xoqon podshohligi davrining boshlarida bir necha vaqt ul hazratning hayotlari va faoliyatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yozib borish bilan shug‘ullandi. Biroq bo‘lgan voqealar to‘g‘risida ma’lumot berishda haddan ortiq o‘xshatishlar va istioralarni qo‘llab, mubolag‘alarga yo‘l qo‘yganligi sababli, Mansur Xoqonga uning bu yozganlari ma’qul kelmadi va ushbu ishni fozillardan boshqa biriga topshirishdi.

Xoja Mujididdin Muhammad M.K.A.N. suhbatida bo‘lishga judayam ishtiyoqmand edi. Mavlaviy janoblari hazil gaplarni ko‘tarmasdan, tezda achchiqlanadigan odati borligi uchun ham unga ko‘p hazil qilgan. Ul janob Xoja Nizomulmulk va uning farzandlari bilan yaqin munosabatda bo‘lib, ul hazratga bag‘ishlab “Tarassulot” asarini yozib qoldirgan. U o‘z asarlaridan birining debochasida Xoja Nizomulmulk, Xoja Kamoliddin Husayn va Xoja Rashididdin Amidulmulkka bag‘ishlab, bir necha bayt yozgan. Quyida haqiqatdan ham yuksak so‘z san’ati namunasi bo‘lgan ushbu baytlarni keltiramiz:

Du barodar bo ham arzoniy, ki dar qadr omada,
On vazoratro maob-u on amoratro maol.

On Kamoli din-u davlat dar hama bobe rashid,
V-in Rashidi mulk-u millat dar nihoyoti kamol.

Ham buvad az royi on subhi saodatro furo‘g‘,
Ham buvad az ro‘yi in xurshedi davlatro jamol.

Barsarand az mehr-u mah on dar alo in dar uluvv,
Bartarand az bahr-u kon, on dar saxo, in dar navol.

Az janobi on naxohad kard davlat ijtinob,
V-az rikobi in naxohad yoft iqbol intiqol.

On buvad xurshedi manzar, in buvad birjisi qadr,
On buvad mahmudi tole’, in buvad mas’udi fol.

Mohi johi vahshati on bod forig‘ az xusuf,
Oftobi davlati in bod iyman az zavol.

Tarj.: Ikki aka-uka qadr-u e’tiborda bir-biriga munosib bo‘lib, biri vazirlik namunasi bo‘lsa, ikkinchisi amirlik timsolidir. Din-u davlatning o‘sha Kamoli barcha sohalarda rashid [botir] bo‘lsa, podshohlik va xalqning bu Rashidi kamolotning eng yuqori cho‘qqisidadir. Unisining tafakkuridan saodat tongi yorishsa, bunisining yuzidan davlat quyoshi go‘zallashadi. Unisi martaba va darajasining yuksakligi va bunisi o‘zining ustunligi bilan quyosh va oydan ham yuqorida tursalar, unisi saxovatda va bunisi sovg‘alar ulashishda dengiz-u kondan ham ustunroqdirlar. Unisidan davlat qochmaydi, bunisining oyoq ostidagi iqbol esa boshqa joyga ketmaydi. Unisi ko‘rinib turgan quyosh bo‘lsa, bunisi qadr Mushtariysi bo‘ladi. Unisi eng yaxshi tole bo‘lsa, bunisi eng baxtli foldir. Unisining hashamat mansabi oyi tutilmasin, bunisining davlati quyoshi botmasin.

M.K.A.N. Mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiyning maqomotlariga bag‘ishlab yozgan kitobida Sulton Husayn Mirzo Boyqaroning hukmronlik zamoni tarixiga oid “Jome’ ul-badoye’” (“Nodir voqealar to‘plami”) nomli kitob yozganligini aniq eslatib o‘tgan. Bundan tashqari “Ravzot ul-jannot” (“Jannat bog‘lari”) asari muallifi Muiniddin Isfizoriy ham Mavlono Abdulvose’ning ushbu kitobini “Jome’ ul-badoye’i Sultoniy” (“Sulton bilan bog‘liq nodir voqealar to‘plami”) nomi bilan eslatib o‘tadi.

“Maqomoti Jomiy” kitobining uchta qo‘lyozma nusxasi O‘zbekiston va Tojikiston kutubxonalarida saqlanmoqda.

Ad.: *Ғиёсиддин ибн Ҳумомиддин Хондамир. Ҳабиб ус-сияр фи ахбори аффод ал-башар (Инсонлар қиссаларидан энг яхши таржимаи ҳоллар) 4-жилд // Устод Жалолиддин Ҳумоий нашрга тайёрлаган // – Теҳрон: 1954.*

K.R.

MAVLONO KAMOLIY (XV asr) – N. u haqida “M.N.” tazkirasining ikkinchi majlisida ma’lumot bergan. Demak, M.K. N.dan yosh jihatdan ulug‘ bo‘lgan. Tazkira tartib berilgan

paytda u hayot bo‘lmagan. Ma’lumki, tazkirada N. turkiy tilda ijod qilgan shoirlarni alohida e’tirof etadi. Sababi bu davrda Xurosonda fors tilida ijod qilish an’ana tusiga kirgan edi. M.K. esa ulardan farqli ravishda o‘z she’rlarini turkiy tilda yozgan. N.ning ta’kidlashicha, M.K. ijodi xalq orasida anchayin mashhur bo‘lgan: “Aning nazmi ham ul navohiyda xaloyiq orasida xoli az shuhrat emas erdi”. Tazkirada ushbu ta’rifga munosib bayt keltiriladi:

Irning qulidur nayshakar, ey jon, beli bog‘liq,
Gul dog‘i yuzing bandasidur to‘ni yamog‘liq.

M.K.ning qabri Ko‘hi Sofda joylashgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

Z.R.

MAVLONO LATIFIY (XV asr) – turkigo‘y shoirlardan. “M.N.” tazkirasining ikkinchi majlisida shoir haqida qisqacha ma’lumot berilgan. Aytilishicha, uning qayerlik ekanligi noma’lum, qabri ham ma’lum emas. Bu ta’rifdan aniq bo‘ladiki, M.L. muallif bolaligidayoq vafot etgan. Chunki tazkiradagi ikkinchi majlisida N. o‘zi ta’kidlab o‘tganidek, kichikligida va yigitligida ko‘rgan, suhbatlashgan ijodkorlar haqida ma’lumot bergan. Yana aytilishicha, M.L. yosh vafot etgan va katta ijodiy meros qoldirmagan. N. shoirning fe’liga ham to‘xtaladi. Jumladan, shunday yozadi: “Ammo mundoq derlarkim, tab’i xili sho‘x ekandur”. N. turkigo‘y shoirning baytlarida ham aynan shu xususiyat namoyon bo‘lishini aytib o‘tadi va quyidagisini namuna sifatida ilova qiladi:

Gah oqar, gah tomar labing shakari,
Bizga tegmasmu hech oqar, tomari.

M.L. ning vafot etgan yili ma’lum emas.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

S.G‘.

MAVLONO MAJNUN (Majnuni Chapnavis (Chappa yozuvchi Majnun) nomi b-n shuhrat qozongan, XV–XVI asr, Hirot) – shoir, xattot, olim. Kamoliddin Mahmud Rafiqiyning o‘g‘li bo‘lib, ismi ma’lum emas. Majnun – adabiy taxallusi. Hirotning xushnavis xattotlaridan bo‘lib, chap qo‘lda ham go‘zal yozar edi. N. “M.N.” tazkirasida u haqda “bozguna” (teskari, aks – arab yozuvining bir turi) xatini andoq ravon va sof bitirkim, mahalli taajjubdur va ko‘rmagan kishi ishona olmas” deb yozadi. U, xususan, nastaliq xatida mohir edi. “Gulistoni hunar” (“Fazilat gulistoni”) asarining muallifi Ahmad Mir Munshiy Qumiyning ma’lumotiga ko‘ra, M.M. bir xat ixtiro qilgan ediki, so‘zlari tarkibidan inson va hayvon suratlari namoyon bo‘lar edi. Jumladan, “Narxi shakkar-u qand shikast az shakkariston” (“Shakariston tufayli qandu shakarning bozori kasod bo‘ldi”) misrasini 2 tomondan yozganida bir-biriga qarab turgan 3–4 kishining qiyofasi ko‘rinardi – xat ham, surat ham bir-biridan go‘zal chiqqan. Bu usul ilgari amalda bo‘lmagani u-n uni M.M. ixtirosi hisoblaydilar. Bu haqda uning o‘zi shunday yozadi:

Tav’amon muxtareyi Majnun ast,
Ki qalam chehrakushoyiho kard.
To shudam muxtare-yu suratkash,
Xatakam suratake paydo kard.

Tarj.: Tav’amon xati Majnunning ixtirosi edi, qalamda o‘zining mahoratini ko‘rsatdi. Kashfiyotchi suratkashligim tufayli xatginam shaklu suratlar paydo qildi.

M.M.ning ilmiy va adabiy merosi boy. Uning “Odobi xat” (“Yozuv odobi”, 1541), “Savod ul-xat” (“Xat yozish usullari”), “Rasm ul-xat” (“Xat yozish qoidalari”, nazmda yozilgan), “Murakkabsozi” (“Yozuv murakkabliklari”) risolalari xattotlik odobi, sirlari, usul va qoidalari, bezak berish yo‘llariga bag‘ishlangan. “Rasm ul-xat” (1534) Eron shohi Tahmosp 1 u-n yozilgan. Bu risolalarning qo‘lyozmalari Tehron universiteti va Sankt-Peterburg Sharq-

shunoslik institutining qo‘lyozmalar fondida saqlanadi. Uning qo‘li b-n ko‘chirilgan Bahrom Mirzoning 1 qit’asi Istanbul kutubxonasida, chap qo‘lida ko‘chirgan 1 qit’a Eron olimi Mahdiy Bayoniy kolleksiyasidan joy olgan. “Layli va Majnun”, “Noz va Niyoz” kabi dostonlarni ham unga nisbat beradilar, lekin ular bizgacha yetib kelmagan.

N. “M.N.” tazkirasida M.M. ijodidan namuna sifatida quyidagi matla’ni keltiradi:

Ba va’z meravam-u zor-zor megiryam,
Bad-in bahona zi hijroni yor megiryam.

Tarj.: Va’z uchun boraman-u, zor-zor yig‘layman – shu bahona yor hijronida yig‘layman.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Тазкираи “Тўҳфаи Сомий”. – Теҳрон, 1347 (ҳ.-ш.); Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 2. – Душанбе, 1989.*

E.O.

MAVLONO MAJNUNIY (XV asr) – balxlik xattot va turkigo‘y shoir. “M.N.”ning uchinchi majlisida uning nomini uchratish mumkin. N., avvalo, uning xattot ekanligini e’tirof etadi. Ma’lumki, o‘sha zamonda mashhur adiblarning asarlarini, qo‘lyozmalarini kitob holiga keltirib, ommaga yetkazish yetarlicha mablag‘ talab qilgan va ba’zi xattotlar shuning orqasidan kun kechirgan. M.M.ni ham N. shunday kotiblar sirasiga kiritadi: “...faqir kishidur, kitobatqina qila olurki, vajhi maosh hosil qilgay”. Yana aytiladiki, M.M. qabristonda kun kechirgan: “Xoja Ukkosha mazorida sokindur”. Tazkirada M.M.ning shoirligi ham kotibligidek o‘rtamiyona baholanadi: “Go‘yo she’r taxayyuli uchun bo‘lg‘aykim, varaq ul-xayol murtakibidur, andoqki, ham mag‘lub bo‘lg‘on chog‘liqdur”. Shoirning quyidagi bayti keltirilgan:

Mohi tobonim isitti qildi bag‘rimni kabob,
Oy edi, emdi haroratdin bo‘lubtur oftob.

Ad: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

Z.R.

MAVLONO MASIHIY (Maseho, XV asr, Hirot) – shoir. Hirotning Fushanj (Kushanj) viloyatidan bo‘lib, temuriylar davrida yashab ijod qilgan. Gavharshodbegim madrasasida tahsil olgan. Hirot adabiy muhitida hurmat-e’tiborga sazovor edi. N. “M.N.”da uni yaxshi hamsuhbat, mehribon do‘st, xushtabiat va shirinkalom shoir sifatida zikr etadi. Sho‘xta’b kishi bo‘lib, hazil va o‘ynoqi she’rlar yozgan, badihalar to‘qishga ham usta bo‘lgan. Quyidagi matla’si she’riyat muxlislari orasida mashhur edi:

Moro ba jafo kushta pushaymon shuda boshi,
Xuni dili mo rexta pazmon shuda boshi.

Tarj.: Bizni o‘zing jafo bilan o‘ldirib, endi pushaymon bo‘lgandirsan, dilimiz qonini to‘kishni sog‘inib ham qolgandirsan.

Ka’ba safarida Arabiston cho‘llarida o‘sadigan mug‘ilon degan tikanli daraxtning soyasida oyog‘iga kirgan tikanni sug‘urib olayotganida karvondagi sho‘xta’blardan biri unga shunday hazil qilgan:

Az ranji rahi dur-u sarxori mug‘ilon,
Az omadani Ka’ba pushaymon shuda boshi.

Tarj.: Uzoq yo‘l azobi-yu, mug‘ilonning o‘tkir tikanidan Ka’baga borayotganingga pushaymon bo‘lgandirsan.

M.M. she’riyatning turli janrlarida qalam tebratgan, ayniqsa, g‘azalnavislikda mohirligini N. e’tirof etgan. M-n:

Har jo, ki sarvi nozi tu binshast fitnahost,
Joye, ki nest sarvi qadat fitna dar kujost?

Tarj.: Sening sarv kabi qadding hamma yerda fitna qo‘zg‘ab yuradi. Sening sarv qadding bo‘lmagan yerda fitna qayerda?

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 2. – Душанбе, 1989.*

E.O.

MAVLONO MAS'UD (XV asr, Shirvon – Hirot) – olim, mudarris, shoir. N.ning "M.N." tazkirasida ma'lumot berilishicha, ilm tahsili u-n Hirotga kelib, turli fanlarni o'zlashtirishga jiddiy kirishadi. Abdurahmon Jomiy suhbatiga yetib, undan ham saboq olish baxtiga muyassar bo'ladi. Gavharshodbegim madrasasida va boshqa ba'zi madrasalarda mudarrislik qilgan. Har kuni yuzdan ziyod talaba undan tahsil olgan. M.M.dan saboq olish orzusida boshqa mamlakatlardan ham talabalar kelgan. Yaxshi axloqli, darveshvash va foniysifat kishi bo'lgan.

Bir kun u peshin namozini N. b-n birga o'qiydi. Namoz tugagach, yana 2 rakaat qo'shimcha namoz o'qiydi. Shunda N. "Xazinachi hisobini ado qilishda ortiqcha keltirish xiyonat dalilidir", – deb hazillashadi. Bu mutoyiba el orasida mashhur bo'lib ketadi. Shuning u-n u aytar emishki: "Bir marta 2 rakaat ortiqcha namoz o'qiganim uchun yillarki uning ta'na-yu malomatidan qutulmayman".

N. o'z tazkirasida uning bir matla'sini ijodidan namuna sifatida keltiradi:

Biso'z sinayi maston ba riqqati mayi nob,
Ki nest so'zi maro sozkor g'ayri sharob.

Tarj.: Mastlar ko'ksini toza may ta'sirida kuydir, zero, mening bu yoniq ko'nglimga sharobdan boshqasi davo bo'lolmaydi.

Xondamirning "Habib us-siyar" asarida xabar berilishicha, M.M. kalom, mantiq, falsafa ilmlarida o'z zamonasining allomalaridan edi. G'iyosiya madrasasida mudarrislik qilgan. N. ham uning saboqlarini olgan. "Hoshiyayi sharhi hikmat ul-a'in" nomli asari ham bo'lgan. "Mullo shudan oson ast, odamiy shudan dushvor" ("Mulla bo'lish oson, odam bo'lish qiyin") matalini unga nisbat beradilar.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

Q.E.

MAVLONO MAHVIY (XV–XVI asr, Xuroson) – shoir. O'z shahrida kamol kasb etganidan keyin Hirotga kelib, saroy xizmatiga kiradi va Xoja Abdulloh Marvorid qo'l ostida ishlaydi. N. "M.N." tazkirasining 3-majlisida u haqda ma'lumot berib, Xurosondan ekanligi, ta'bi nozikligini aytadi. Shuningdek uning ba'zi-ba'zida tahsil b-n mashg'ul bo'lib turgani haqida ham yozgan. "Yana yigitlik havo va havasi ani parishon tutar va musohiblar parishonlig'i ani somon qilur. Tab'ida xeylig'ina choshnisi bor", – deb ijodidan namuna sifatida bir matla'sini keltiradi:

Dude, ki az dili man dar shomi g'am baroyad,
Bar yodi turrayi o' purpech-u xam baroyad.

Tarj.: Uning halqa-halqa sochi yodida g'am shomida ko'nglimdan hasrat tutuni buralib-buralib chiqadi.

Som Mirzo Safaviy uning asosan g'azal janrida qalam tebratgan shirinkalom shoir ekanligini aytadi. Tazkira va bayozlarda M.M.ning ko'plab g'azal va ruboiylari keltirilgan. Quyidagi bayt ham uning ta'bi nazmidan:

Qaddi tu umri darozi man ast-u peshi raqib
Nishastayi-vu maro nim umr kam shuda ast.

Tarj.: Sening qadding men uchun uzun umrdir, lekin sen raqibning yonida o'tirding-u uni teng yarmiga qisqartirding.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.; Тазкираи "Тўҳфаи Сомий". Теҳрон, 1347 (ҳ.-ш.); Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 2. – Душанбе, 1989.*

E.O.

MAVLONO MIR QARSHIY (XV asr, Qarshi – Samarqand) – sahhof, shoir. Qarshida tug‘ilib o‘sgan. Ilm tahsili u-n Samarqandga kelib, shu yerda muqim yashab qolgan. N. “M.N.” tazkirasida ma’lumot berishicha, Samarqandda yashab ijod qilgan. Dastlab Xatoiy taxallusi b-n she’rlar yozgan. Hunarmand shoir bo‘lib, sahhoflik do‘koni bor edi. Ta’b va fazl ahli shu yerda yig‘ilib turishgan. M.M.Q. ularning ustodi hisoblangan. Shikoyat bobida mana bu matla’si yaxshi chiqqanini aytadi:

Nest oyini muhabbat kardan az yor gila,
V-arna z-on badahd mekardem bisyor gila.

Tarj.: Muhabbat qoidasida yordan gina qilish yo‘q, bil’aks u ahdida turmagandan ko‘pdan-ko‘p gina qilar edim.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.; Муҳаммад Н. Насаф ва Кеш алломалари. – Т., 2006.*

E.O.

MAVLONO MONIY (t.y.n. – Mashhad, 1517) – shoir. Kulol oilasida tug‘ilgan va bir muddat o‘zi ham kulolchilik qilgan. N. “M.N.” tazkirasida ma’lumot berishicha: “Sohibjamol va zarif va ra’no yigitdur. Bovujudi ulkim, atosi benazir kosagarkim, chinni yasar va inisi andoq naqsh qilurkim, Chin va Xitoda qila olmaslar. Ul bu ikki hirfasidin or qilib, birin quli, birin chuhrasicha ko‘rmas. Chun husni bor, husni xati va husni kalomi dag‘i bor, har ne qilsa, anga tegar. Bu matla’ aningdurkim:

Chu dar sahroyi g‘am devonason
bo xud fitad changam,
Gahe dar changam aftad sang-u
gah sang aftad az changam.

Tarj.: G‘am sahrosida devona kabi o‘zimga o‘zim chang solaman, goh qo‘limga tosh tushadi-yu, goh qo‘limdan tosh tushadi.

Iste’dodi tufayli Husayn Boyqaroning Kepak Mirzo nomi b-n mashhur bo‘lgan o‘g‘li Muhsin Mirzo xizmatiga kirib, uning yaqinlari safidan joy oladi. Mashhadda shahzoda b-n birga shayboniylar tomonidan qatl etilgan. Tazkiralarning ma’lumot berishicha, u XV asrning mashhur qasidanavislaridan biri bo‘lgan. Ko‘proq qasida, g‘azal va ruboiy janrlarida qalam tebratib, o‘zidan devon meros qoldirgan. Quyidagi bayt ham uning ta’bi nazmidan:

Ba xandayi namakin yor dar muqobili mo,
Chi guna toza nagardad jarohati dili mo?

Tarj.: Yor nozli tabassum qilib qarshimizda tursa, qanday qilib dilimizning jarohati yangilanmasin?

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Тазкираи “Тўҳфаи Сомий”. – Теҳрон, 1347 (ҳ.-ш.); Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилди 2. – Душанбе, 1989.*

E.O.

MAVLONO MUQIMIY (XIV asr oxiri – XV asr 1-yarmi) − shoir. Xurosonda yashagan. “M.N.”da darveshtabiatli kishi bo‘lib, tasavvuf istilohlarini yaxshi bilishi, turkigo‘y bo‘lgani va turkiycha so‘fiyona tarje’band yozgani aytilgan. N. tarje’bandning takrorlanib keluvchi baytini keltiradi:

Sensen asli vujudi har mavjud,
Sendin o‘zga vujudda ne mavjud.

“M.L.”da ham uni o‘zigacha yashab ijod qilgan iste’dodli shoirlar qatorida tilga oladi. Qabri Hirotda.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

M.A.

MAVLONO MUHAMMAD AMIN (t.y. va v.y.n; qabri Hirotda) – taniqli tasavvuf shayxi. N. zamondoshlaridan. “N.M.”da u haqida o‘qiymiz: “Bag‘oyat buzurgvor kishi erdilar, donishmand va muttaqiy. Va majolislarida tafsir va hadisdin o‘zga so‘z oz o‘tar erdi. Va aksar Haq (s.t.)ning lutf-u ehsoni va bandalarg‘a rahm-u rahmatidin va mujrim bandalarning Tengri taolo avfidin umidvorlig‘i bobida oyot-u ahodis o‘qurlar erdi. Har necha fosiq-u fojir va noumid kishi alar suhbatig‘a yetsa erdi, umidvor chiqar erdi. Muborak sinlari yuzdin tajovuz qildi. Bu ruboiy bu faqir xotirig‘a alarning muborak tilidin qolibdurki,

Bod omad-u bo‘yi zulfi jonon ovard,
V-in ishqi ko‘han noshudayi mo nav kard.
Ey bod, tu bo‘yi oshnoyi dori,
Zinhor magard, hech begona magard.

Tarj.: Shamol esdi-yu, jonon zulfining hidini keltirdi, bizning eski xarob ishqimizni yangiladi. Ey shamol, u bilan oshnoliging bor, zinhor biror begona atrofida aylanma.

Shayx Shoh Ziyoratgohiy va ul asrda ko‘prak mashoyix bila suhbat tutub erdilar. Balki mashoyix alar suhbatig‘a tabarruk tilar erdilar. Qabrlari Ziyoratgoh dashtidadur.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

E.O., Z.R.

MAVLONO MUHAMMAD BADAXSHIY (t.y. va v.y.n., XV asr) − shoir, adabiyotshunos. N. uning Qunduzdagi Ishkamish kentidan bo‘lib, avval Samarqandda tahsil olgani, keyin Hirotga kelgani haqida ma’lumot beradi. Jomiy va N. b-n tanishib, ularning adabiy suhbatlaridan bahramand bo‘lgan. Muammo ilmida va ta’rix aytishda ham uning mohirligi N. tomonidan tilga olinadi.

“Qunduzning Ishkamish kentidindur. Avvali holida andin tahsil uchun chiqub Samarqandg‘a bordi va bir necha vaqt anda sabaq o‘qub, Hiriyga keldi. Tahsil ishin takmil qilur vaqtda g‘oyat xushtab’lig‘idin va musohiblar xotiri jihatidan lavandlig‘larg‘a tushti va rindliq tariyqin ul martabag‘a yetkurdikim, mast yo maxmur bosh va oyoq yalang ko‘y va ko‘cha va bozorda yurur erdi. Hodiyi tavfiq tavba nasib qilib, ani tuz yo‘lg‘a keturdi. Holo tab’ ahli orasida andin somonliqroq kishi yo‘qtur. Podshoh va gadog‘a maqbul va muloyimdur. Va muammo fanida risola bitibdurkim, ko‘p el orasida mashhur va shoye’dur. Ammo agar muhovirotda gohi so‘zga betaammul javob berur, chun g‘alat kam tushar, hech tushmas va muammodin boshqa dag‘i nazmlari bor. Bu matla’ aningdurkim:

Xayoli qomatash dar didayi bexob megardad,
Chu on mohiki, har so‘z dar miyoni ob megardad.

Tarj.: Uyqusiz ko‘zlarimda yor qomatining xayoli suv ichidagi baliqdek har tomon charx uradi.

Xondamirning “Xulosat ul-axbor” asarida uni “bag‘oyat xushfe’l, shirinso‘z, xushchaqchaq, darveshvash, xushxulqlik, latiftab’ va fozil kishi”, deb ta’riflaydi. 30 yilga yaqin N. mulozamatida bo‘lgan.

Bobur M.B.ning she’rlari badiiy jihatdan uncha baland bo‘lmasa ham, lekin muammo haqidagi risolasini ancha yaxshi bitibdi, deydi. Ishkamish Badaxshonga kirmagani holda nega Badaxshiy taxallusini olganiga hayron bo‘ladi. Chunki M.B. bir qancha muddat Samarqandda Bobur xizmatida bo‘lgan.

Ad.: *Алишер Навоий. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 2002; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985.*

E.O.

MAVLONO MUHAMMAD JOMIY (To‘liq ismi: Mavlono Shamsiddin Muhammad ibn Nizomiddin Ahmad, taxminan 1420, Jom – tax-

minan 1463, Hirot) – shoir, donishmand, tabib. Abdurahmon Jomiyning ukasi. Sulton G‘iyosiddin G‘uriy madrasasida tahsil olgan. Tib, musiqa, advor, fiqh ilmlarini yaxshi o‘zlashtirgan edi. Tabobatni Abu Ali ibn Sinoning “Al-qonun fi-t-tib” asari orqali o‘zlashtirib, kasallarni shunga muvofiq davolagan. Ibn Sinoning “Shifo” asari ham uning sevimli kitoblaridan hisoblangan. Darveshona axloq sohibi edi. Ta’bi nazmi ham bo‘lib, g‘azal va ruboiy janrlarida qalam tebratgan. She’rlaridan parchalar turli adabiy manbalar orqali yetib kelgan. N.ning “M.N.” tazkirasida yozishicha: “Ul og‘og‘a inilikka loyiq va tariqi alar tariqi bila muvofiq erdi. Bu ruboiy alarningdur:

In bodani man be tu ba lab meoram,
Ne az payi shodi-yu tarab meoram.
Zulfi siyahi tu ro‘zi man karda siyoh,
Ro‘zi siyahi xesh ba shab meoram.

Tarj.: Sensiz mayni shodlig-u xursandchilik maqsadida ichmayman. Qora soching yorug‘ kunimni qora qildi, endi qora kunim ham tunga o‘xshab qoldi.

Yosh holida olamdan o‘tgan. Jomiy uning vafotiga marsiya yozgan. Jumladan:

Man budam az jahon-u giromi barodare,
Dar silki ahli fazl garonmoya gavhare.
Z-in son barodare, ki dar atvor-u ilm-u fazl,
Chu o‘nazod modari ayyom digare.

Tarj.: Bu dunyoda men b-n aziz ukam qolgan edik. U fazilat ahli rishtasida qimmatbaho gavhar edi. Fe’l-u atvor-u ilm-u fazilatda bu kabi zamon yagonasini davr onasi boshqa tug‘magan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 2. – Душанбе, 1989; Жилд 3. – Душанбе, 2004.*

E.O.

MAVLONO MUHAMMAD NE’MATOBODIY – Muammonavis shoir. Hirotda yashagan. Pahlavon Muhammad xonaqohida imomlik qilgan. Pahlavon Muhammad majlislarida hamisha shoir-u muammogo‘ylar ishtirok etar ekanlar. Ularning ta’sirida bu ham muammo aytishga mayl paydo qiladi. Undagi iqtidorni ko‘rgan ustozi muammo ustalari qo‘liga topshiradi va u tez orada yaxshigina muammonavis bo‘lib yetishadi. Ammo yosh olamdan o‘tadi. N. “M.N.”da uning muammolarini bir yerga jamlaganini aytadi va “Koko” ismiga yozgan bir muammosini misol tariqasida keltiradi:

On chi kardi bar dil az bedodgar yod oramash,
Go‘yamad bo ko‘hi jononam ba faryod oramash.

Mavlono: “Mening ko‘nglimga nimaki qilgan bo‘lsang, zulm qiluvchi u zolimni yod etaman, go‘yoki jonon ko‘yida faryod qilaman desam ham bo‘ladi”.

Gozurgoh mavzeyida dafn etilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

M.A.

MAVLONO MUHAMMAD OLIM SAMARQANDIY – N. “M.N.”ning birinchi majlisida tilga olgan qalam ahlidan. N. unga tazkirada alohida “Muhammad Olim” nomli fiqra bitgan. U Samarqand madaniy muhiti vakili sifatida Olim Samarqandiy nisbasi b-n ham tilga olingan. N. yozgan ma’lumotga ko‘ra, Olim Samarqandiy Movarounnahr hukmdori Mirzo Ulug‘bek (1394–1449)ning musohiblaridan biri va ular yoshligida Samarqand madrasasida birga tahsil olgan. U ma’lum muddat Sulton Ulug‘bek saroyida mulozim bo‘lgan. Biroq fe’lidagi kibr va gap-so‘zida til odobiga rioya qilmagani sabab hukmdorning nazaridan qolgan, uning hukmi b-n Samarqanddan Hirotga ixroj qilingan.

N. fiqrada uning qalamiga mansub fors tilida bitgan g‘azal matla’sini tamsil qilib keltirgan:

Mo siyah baxtem-u bad ro‘zem-u axtar so‘xta,
Sham’i maqsude ba umri xud shabe nafro‘xta.

Tarj.: Biz baxti qaro, yomon kunga qolgan va yulduzi so‘ngan kishimiz, butun umrimizda biror kecha ham maqsadimiz shami yonmagan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ражабова Б. “Мажолис ун-нафоис”да маданий муҳит тасвири / Боқий васиятномалар. – Т., 2022.*

B.R.

MAVLONO MO‘MINIY (XV asr) – shoir. Hayoti va ijodi haqida faqat N. “M.N.”da bergan qisqa ma’lumot mavjud. Unga ko‘ra, samarqandlik bo‘lib, N. qurdirgan “Xalosiya” xonaqohida tahsil ko‘rgan. Oti Abdulmo‘min bo‘lganligidan Mo‘miniy taxallusi b-n tanilgan. N. M.ning ravon ta’bi borligini ta’kidlab, ijodidan namuna sifatida quyidagi baytini keltiradi:

Bikusho dahanki, no‘shi labo, no‘shxand ham,
To qiymati shakkar shikani, narxi qand ham.

Tarj.: Og‘zingni och-u shirin tabassum-u shakar so‘zing bilan shakarning qimmatini-yu qand narxini sindir.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 2. – Душанбе, 1989.*

H.A.

MAVLONO NAIMIY (XV asr) – shoir, arbob. Husayn Boyqaroning hali saltanat da’vosi ila yurgan paytlarida unga hamroh bo‘lib, sidq-u ixlos b-n qilgan xizmatlari evaziga keyinchalik yuqori mansablarga erishdi. Ana shunday yurishlardan birida jarohat olib, olamdan o‘tgan. N.ning “M.N.” tazkirasida ma’lumot berishicha, ta’bi nazmi yaxshi bo‘lib, turkiyda go‘zal she’rlar bitgan. Ijodidan namuna sifatida quyidagi baytini keltiradi:

To adamdin bo‘ldi paydo
munchakim husn-u jamol,
Sen parivashdek yaratmabdur
bashardin Zuljalol.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

E.O., M.A.

MAVLONO NARGIS (XV asr, Hirot) – shoir. Ohiy taxallusi b-n ham ijod qilgan. N. “M.N.” tazkirasida unga yuqori baho bermaydi. Hatto taxallusini o‘zgartirgani ham unga yoqmaydi. Sababi so‘ralganda tayinli javob aytmadi, deydi. Qayerdakim ohorli tashbeh yoki nozik ma’no ko‘rsa, darhol o‘zlashtirib olishni odat qilgani haqida gapirib, zora taxallusini o‘zgartirganidek, bu noma’qul odatini ham tashlasa, deb umid bildiradi va ijodidan namuna sifatida bir matla’sini keltiradi:

Ba yodi sahfayi ruxsori u k-az mah
fuzun omad,
Kushodam foli Mushaf, surayi
“Yusuf” barun omad.

Tarj.: Oydan go‘zal yuzining sahifasi yodi b-n Qur’oni Karimdan fol ochsam, “Yusuf” surasi chiqdi.

Bu yerda Yusuf (a.s.)ning husn-u malohat timsoli ekanligiga ishora qilinmoqda.

Ba’zi manbalarda uni Oyatiy Hiraviy tarzida ham keltiradilar. G‘azal devoni meros bo‘lib qolgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 2. – Душанбе, 1989.*

E.O.

MAVLONO NARGISIY (1470–1530/31, Iroqi Ajam) – shoir. “M.N.” tarjimoni Faxriy Hiraviy ma’lumotiga ko‘ra, u N. yozganidek,

Marvdan bo‘lmay, balki Marvda N. xizmatiga yetishgan. Aslida u Abhar shayxzodalaridan bo‘lib, abharliklar uning avlod-ajdodlarini nihoyatda hurmat qilganlar. Avvalida beboshlarga qo‘shilib, qimmatli vaqtini behuda o‘tkazgan bo‘lsa, keyin qilmishlaridan tavba qilib, toat-ibodatga berilgan. N. uning jafokash yigit ekanligini ta’kidlab, ijodidan namuna sifatida bir matla’sini keltirib o‘tadi:

Onroki dardi ishqi tu devona soxta,
Majnun sifat bago‘shayi vayrona soxta.

Tarj.: Sening ishqing kimniki devona qilgan bo‘lsa, u Majnun kabi bir vayronani go‘sha tutadi.

Ko‘p vaqtini Hirotda kechirgan. Bir kuni Abdullo Hotifiy ismining sababini so‘raganida u shunday javob bergan ekan: “Mening ismim aslida Abulmakorim Nizoriddin Qudrat bo‘lib, tug‘ilgan shahrimda meni Shayx Mirak deydilar. Nargisiy esa taxallusimdir”. Bir muddat Hirotda muhtasiblik qilgan. Keyin Qandahorga ketgan.

Tazkiralarda u xushta’b va mahoratli shoir sifatida tilga olinadi. Masnaviy, g‘azal, qit’a, ruboiy kabi janrlarda qalam tebratgan. Shohiy Sabzavoriyga tatabbu’ qilgan. G‘azallar devoni yetib kelgan. G‘azallarida ishq-u muhabbat mavzusi, hasbi hol ruhi ustun. Nizomiyning “Maxzan ul-asror” dostoniga javoban bir doston ham yozgan. Quyidagi maqta’ ham uning ijodidan:

Nargisiy ro‘y ba rah kard zi vayronayi xesh,
Kas chi donad, ki kujo meravad in devona?

Tarj.: Nargisiy o‘z vayronasidan chiqib, yo‘lga ko‘z tikdi – bu devona qayoqqa borishini hech kim bilmaydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Тазкираи “Тўҳфаи Сомий”. Теҳрон, 1347 (ҳ.-ш.); Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Ж. 2. – Д., 1989.*

E.O.

MAVLONO NIZOM ASTROBODIY (Astrobod – Hirot) – shoir. Xondamir “Xulosat ul-axbor”da uning N. tarbiyati va homiyligidan bahramand fazl egalari qatorida zikr etadi. Zamon qasidago‘ylarining yetakchisi bo‘lib, N. madhida go‘zal qasida bitgan va uning lutf-u ehsoniga musharraf bo‘lgan.

Ad.: *Навоий замондошлари хотирасида. – T., 1985.*

Sh.R.

MAVLONO NIZOMIDDIN ABDULHAY – tabib. N. qurdirgan “Dor ush-shifo”da xizmat qilgan. Xondamir “Xulosat ul-axbor” asarida bu haqda shunday yozadi: “Boshida hidoyat belgilariga ega bo‘lgan Amirning shifoxonasida kasallarni davolashga mashg‘ul bo‘lgan. Valiylikning panohi bo‘lmish Xoja Nosiriddin Ubaydulloh kasallikka chalinganligi sababli o‘z odamlaridan birini Hirotga yuborib, Hazrat sultonning yaqin kishisi bo‘lmish ul hazratdan tajribali bir tabibni uning oldiga jo‘natishlarini so‘raganida, tabobat xazinasi bo‘lmish ul janob olijanob Amirning buyrug‘iga ko‘ra, Samarqandga bordi. Zimmasiga yuklatilgan vazifani a’lo darajada bajarib, yorug‘ yuz b-n Hirotga qaytib kelgach, yanada ko‘proq e’tiborga tushib, yanada kattaroq inoyatlarga erishdi.

Mavqe va darajasi kun sayin oshib, baxt va tole’ yulduzi lahza sayin yorug‘roq charaqlay boshladi. Nihoyat, maqtalgan sifatlarga ega bo‘lgan Sohibqiron Sultonning iltifotli nazariga tushdi. Saroyda ham kattalar va kichiklarning sirdoshiga aylandi.

Hozirgi vaqtda mansab va martaba bosqichlarining eng yuqori darajalariga erishgan kezlari bo‘lib, aksariyat vaqtini a’lo hazratlarining xizmatida o‘tkazadi”.

Ad.: *Ғиёсиддин ибн Ҳумомиддин Хондамир. “Хулосат ул-ахбор фи баён ал-аҳвол ал-ахёр” (“Яхши кишиларнинг ҳаётлари тўғрисида қисқача маълумотлар”) асаридан бир бўлим // Гўё Эътимодий нашрга тайёрлаган //*

Кобул, 1966; Ғиёсиддин ибн Ҳумомиддин Хондамир. Рижоли Ҳабиб ус-сияр (Ҳабиб ус-сияр арбоблари) // Абдулҳусайн Навоий нашрга тайёрлаган // – Теҳрон.

K.R.

MAVLONO NIZOMUDDIN XOMUSH – 1360–1450-yy.da yashab o‘tgan naqshbandiyaning o‘z davridagi yirik shayxlaridan biri. U kishi haqida Abdurahmon Jomiyning “Nafahot ul-uns”, Ali Safiyning “Rashahotu aynil hayot”, Muhammad Qozining “Silsilat ul-orifin”, Muhammad Doroshukuhning “Safinat ul-avliyo”, Ali ibn Mahmud al-Abivardiyning “Ravzat us-solikin”, Mavlono Mir Muhammad Toshkandiyning “Manoqibi Mavlono Lutfulloh”, Muhammad Haydar Mirzoning “Tarixi Rashidiy” va yana boshqa bir qator manbalarda ma’lumot berilgan.

Mazkur manbalarda N.X.ning fazilatlari va kashf-u karomatlari haqida so‘z yuritilsa-da, tarjimayi holiga doir ma’lumotlar juda kam uchraydi. Hatto Abdurahmon Jomiy, N.lar ham o‘z asarlarida N. X.ning tug‘ilgan, vafot etgan yili, dafn etilgan joyini ko‘rsatmaganlar. Faxriddin Ali Safiyning “Rashahot” hamda Nosiriddin Buxoriyning “Tuhfat uz-zoirin” asarlaridan ma’lum bo‘ladiki, N.X.ning qabri Toshkentda Abu Bakr Qaffol (Shoshiy) qabrining poyidadir.

N. “N.M.” asarida N.X.ning Xoja Alouddin Attor xalifalaridan ekani va tahsil paytlari bir marta “Xojayi buzurgvor (Bahouddin Naqshband)ni Buxoro ulamolaridan birining majlisida” ko‘rgani, ana shundan keyin “Xoja Alouddin suhbatig‘a” borganini naql qiladi. N.ning yozishicha, N.X. dastlabki paytlar “riyozot-u mujohadot”ga mashg‘ul bo‘lgan “va nafs tazkiyasi va ko‘ngul tasfiyasi”ga ko‘p “jiddu-jahd” ko‘rgizgan. N.X. ning aytishicha, birinchi marta Alouddin Attor suhbatiga borganida, eshigida turgan yaqinlaridan biri unga qaratib: “Zuhd-u pokizalikdan chiqish payti yetmadimi?” deb aytadi. N.X. esa: “Bu so‘z menga og‘ir botdi. Lekin Xojaning huzuriga kirganimda u kishi ham shu so‘zlarni takrorlagandan keyin bu so‘z menga og‘ir botmadi”, - deydi. N. Jomiyning “Nafahot ul-uns” kitobida Sa’didin Koshg‘ariyning N.X.dan ko‘p naqllar qilganini eslatadi. Jumladan, Jomiy Ubaydulloh Ahror hazratlaridan shunday naql qilgan ekan: “... bir kun alar xidmatig‘a boradur erdim. Yo‘lda manga oshnolardin biri yo‘liqti va so‘zga tutti, hamonoki, ul kishi chog‘ir ichib erdi. Chun alar (Nizomiddin Xomush) xidmatig‘a yettim, dedilarki, magar sen icharsen? Dedim: yo‘q. Dedilar: pas sanga ne holdur? Dedim: Yo‘lda bir mast yo‘luqti, meni so‘zga tutti. Dedilar: pas bu aning holidurkim, sanga qolibdur”.

N.X.dan keyin uning sulukini farzandlari va boshqalar davom ettirgan bo‘lsa-da, uning o‘rniga bosh xalifa o‘laroq Sa’didin Koshg‘ariy qolgan va naqshbandiyani davom ettirgan. N.X. Abdurahmon Jomiyga ham pirlik qilib, shayxlik qilishga ijozat bergan.

Ad.: *Алишер Навоий. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Носириддин Бухорий. Туҳфат уз-зоирин. – Бухоро, 1908; Али Сафий. Рашаҳоту айнил ҳаёт. – Т., 2004.*

S.R.

MAVLONO NODIRIY (XV asr, Marv) – shoir. N.ning “M.N.” tazkirasida, go‘zal ta’b sohibi bo‘lib, ohorli va chiroyli topilmalar qilishga intilgani haqida xabar beriladi. Ammo erinchoq bo‘lgan – iste’dodini yetarli darajada ishga solmagan. Bir muddat N. b-n yaqin bo‘lgan. Lekin dangasaligidan qutulolmay ishi orqaga ketgan. N. uning ijodidan namuna sifatida quyidagi matla’sini keltiradi:

Ba sang narm kun, ey charx, ustuxoni maro,
Mabodo raxna kunad tig‘i dilsitoni maro.

Tarj.: Ey falak, mening suyaklarimni tosh b-n yumshatib qo‘yki, dil oluvchi sanamning o‘qiga tag‘in shikast yetkazmasin.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

M.A.

MAVLONO OLIM – N. “M.N.” tazkirasida keltirishicha, donishmand kishi bo‘lib, mudarrislik qilgan. Go‘zal ta’bi nazm sohibi ham edi. Bir kuni bir masala yuzasidan bir guruh el b-n shikoyat xati yozadi. Devonboshi masalani ko‘rib chiqishni o‘sha paytda muboshir (boshqaruvchi) bo‘lib ishlayotgan Majdiddin Muhammadga havola qiladi. M.O. arizasini unga beradi. Majdiddin uning muxoliflari tarafida bo‘lganligi u-n xatni o‘qib ham o‘tirmay, o‘zi moyil toifa foydasiga hukm chiqaradi. Shunda M.O. badiha tarzida quyidagi baytni o‘qiydi:

Kori moro Xoja Majduddin Muhammad
hech kard,
Kog‘azi moro naxond on ro‘z-u
darham pech kard.

Tarj.: O‘sha kuni Xoja Majduddin Muhammad bizning ishimizni yo‘qqa chiqardi, chunki shikoyat xatimni o‘qib ham o‘tirmay, bir chekkaga o‘radi-qo‘ydi.

Bu bayt xalq ichida mashhur bo‘lib ketadi. Quyidagi matla’ ham uning ta’biga dalildir:

Oyam ba sar ba rohat payvasta ham chu xoma,
Kardi zi bahram az xat, ey moh, gird noma.

Tarj.: Qalam kabi ko‘yingga boshim b-n yurib kelaman. Ey oy, men u-n xatlarni sochingga chirmab qo‘yding.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

E.O.

MAVLONO RIYOZIY (Taxallusi. To‘liq ismi: Imomiddin Riyoziy Samarqandiy (t.y.n. – 1479, Samarqand) − shoir, olim, xattot. Tug‘ilgan shahrida tahsil olib, zamonasining asosiy fanlarini o‘qib-o‘zlashtirgan. Keyin Hirotga borib, N. dargohiga yo‘l topadi. 526 baytni o‘z ichiga olgan devoni saqlanib qolgan. Asosan, g‘azalnavis shoir bo‘lib, g‘azallarida tabiat tasviri, tarjimai hol, zamonadan shikoyat ohanglari ham o‘rin olgan.

N. “M.N.” tazkirasida shunday qaydlar bor: “M.R. barcha fazilatlarning mujassami va dalillari puxta kishi, yaxshigina shoir bo‘lib, xususan, g‘azal yozishda mohir edi. 7 xil arab yozuvi (suls, muhaqqiq, taqvi’, rayhon, riqo’, nasx, ta’liq)da mohir. Qur’onni 7 xil qiroat b-n o‘qiydigan hofiz ham edi. Biror ilm sohasidan bebahra emasdi. Qaysi ishga qo‘l urmasin, albatta, uni amalga oshira olgan. Musiqa, nujum va boshqada ham tengsiz bo‘lgan. Shunga yarasha obro‘-e’tibori ham baland edi. Bundan u kibr-u g‘urur paydo qilgan”. Uning shunday bayti bor edi:

Sitorayest duri go‘shi on hilolobro‘,
Zi ro‘yi husn ba xurshed mezanad pahlu.

Tarj.: U hilol qoshli qulog‘idagi dur bir yulduzga o‘xshaydiki, quyosh b-n husn talashadi.

N.ning aytishicha, ikki misrani o‘zaro bog‘lash u-n bir “ki” bog‘lovchisi taqozo qilinadi. Shu bois u baytni quyidagicha tuzishni taklif etadi:

Zi ro‘yi husn duri go‘sht on hilolabro‘
Sitorayestki bo moh mezanad pahlu.

Tarj.: U hilol qoshlining qulog‘idagi dur bir yulduzdirki, oy b-n husn talashadi.

N. nusxasida ikki misrani bir-biriga bog‘laydigan “ki” keltirilishi b-n birga tashbeh ham mantiqan to‘g‘ri tus oladi. Lekin M.R. bu to‘g‘ri maslahatni olish o‘rniga o‘zidan xato topganlari u-n jahli chiqib ketadi. Yaqinlari har qancha insofga chaqirsalar ham qabul qilmaydi.

G‘azallari mutolaasi M.R.ning qalami o‘tkir san’atkor shoir ekanligidan dalolat beradi. Shoir ijodiga Xo‘ja Hofiz kuchli ta’sir ko‘rsatgan. O‘z iste’dodiga mahliyolik unda kibr-u g‘urur paydo qilgan bo‘lsa kerakki, N. uni “Mutakabbir va mo‘jab (xudbin, manman) kishi erdi”, – deb tanqid ham qiladi.

M.R.ning faxr-u iftixor b-n maqta’laridan birida “Agarda malaklar Riyoziy she’rlarini mehr-

-u ixlos bilan falakning moviy sahifalariga darj etsalar, bu sahifalar tillarang tus oladi”, – deb mubolag‘a qilishi bejiz emas:

To navisand qudsiyon she’ri Riyoziro zi mehr,
Sahfayi sabzi falakro kardaand afshon ba zar.

Shoir she’rlari favqulodda mubolag‘alar, ohorli tashbehlar, haddi a’losiga yetkazilgan husni ta’lillar, kutilmagan talmehlar, hayratomuz tashxislar, tazodlar, shuningdek, boshqa ma’naviy hamda lafziy san’atlarga boyligi b-n o‘ziga xos joziba va teranlikka ega. Ma’lumki, irfoniy she’riyatda ma’shuqaning yuzini Mus’hafga, demakki, iymonga, sochini zunnorga, demakki, kufrga nisbat berish bir an’ana tusini olgan. Shundan kelib chiqib, bir matla’sida u: “Ey pari, jilvagar sochlaringni yuzing ustidan olib tashla – qachongacha Mus’haf ustiga zunnorni qo‘yasan”, – deb tutilmagan tashbeh topadi:

Ey pari, az rux barafkan turrayi tarrorro,
Tobakay bar ro‘yi mushaf menihi zunnorro.

Boshqa bir baytida esa “Sening beqiyos husning aks etgani tufayli ko‘zimning pardasi pari surati tushirilgan qog‘ozga o‘xshaydi”, – deya yana bir betakror tashbeh qo‘llaydi:

Doni, ki chist pardayi chashmam zi ro‘yi tu
Chun kog‘aze kashida bar o‘ surati pari.

Ilm-u adab ahli o‘rtasida katta shuhrat qozongan M.R. yosh o‘lim topadi. Qabri o‘zi tug‘ilib o‘sgan Samarqandda.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9 жилд. – Т., 2011; Айний С. Асарлар. 8-жилд. – Т., 1967; Сиддиқов С. Имомиддин Риёзийи Самарқандий (Сарсухан) // Риёзийи Самарқандий. Девон. – Душанбе, 1974.*

E.O.

MAVLONO RUHIY YOZIRIY (XIV asr, oxiri – 1449, Xuroson) – shoir. N.ning “M.N.” tazkirasida ma’lumot berishicha, Xurosonning fozil kishilari jumlasidan bo‘lib, ta’bi mavzun, suluki marg‘ub kishi bo‘lgan. “Bulbul bilan gul”, “Sham bilan parvona” nomli munozaralar yozib, ularda o‘z mahoratini namoyon qilgan. Saraxs viloyatidan tortib, to Darun va Yozirgacha uning zamonida barcha ta’b ahli unga shogird bo‘lganlar. Shoir o‘z fikrini uning ijodidan keltirilgan bir matla’ b-n yakunlaydi:

Namexohamki kas yobad zi sirri holam ogohi,
Va garna olame so‘zam ba yak ohi sahargohi.

Tarj.: Ahvolim siridan birovning xabar topishini istamayman, aks holda sahar chekkan bir ohim bilan butun olamga o‘t qo‘yaman.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Asadov M. Navoiy ijodida “Ta’b ahli” talqini. // “Alisher Navoiygacha XXI asr” mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari. – T.–Bursa, 2024.*

E.O.

MAVLONO SAVSANIY (XV asr oxiri – XVI asr boshi) – shoir. Kamolot yoshida she’r-u shoirlikka mayl ko‘rsatib, adabiy davra tashkil etadi va ko‘plab shogirdlar tarbiyalab yetishtiradi. Asosan, g‘azal janrida ijod qilgan. She’rlaridan parchalar turli tazkira va bayozlar orqali yetib kelgan.

N.ning “M.N.” tazkirasida yozishicha, ozodavash kishi bo‘lib, vaqtini ko‘proq Gavharshodbegim madrasasi atrofida o‘tkazar edi. Keyin bir go‘shada sokin bo‘lib, bo‘lar-bo‘lmas kishilar suhbatidan o‘zini olib qochgan, chunki ortiqcha dardisarga toqati yo‘q edi. Koshki bu davlat hammaga nasib qilsa, deb umid qiladi N. va ijodidan namuna sifatida bir matla’sini keltiradi:

Mujarradonki, zi qaydi zamona ozodand,
Na sayd gashta ba domi kase, na sayyodand.

Tarj.: Ozod kishilar zamona tashvishlaridan qutulgandirlar – ular na ovchidirlar-u na birovlarning tuzog‘iga asir.

Som Mirzo Safaviy ham “Tuhfai Somiy” tazkirasida S. taxallusli bir shoir haqida yozadi, lekin uning ma’lumotlari N. ma’lumotlariga mutlaqo zid ekanligi, u shoirning boshqa shaxs ekanligini ko‘rsatadi.

Sodiqbek esa “Majma’ ul-xavoss” tazkirasida o‘zi turkman bo‘lib, Husayn Boyqaroga qo‘rchilik qilgan, N. she’riyatining oshuftasi bo‘lgan Savsaniy degan shaxs haqida xabar beradi. Lekin u keyinchalik sharob, taryok va qimorga berilib ketib, tushkunlikka yuz qo‘ygani va Hamadonda vafot etganini ma’lum qiladi. Uning chala qolgan devonini tugatishni Amirxon Gulobiy turkman Sodiqbekka havola qiladi va u bu vazifani ado etganini aytadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Тазкираи “Тўҳфаи Сомий”. – Теҳрон, 1347 (ҳ.-ш.); Шайхзода. Тазкирачилик тарихидан // Асарлар. 4-жилд. – Т., 1972; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 3. – Душанбе, 2004.*

E.O.

MAVLONO SAFOIY (XV asr, Andijon – Samarqand) – shoir. N. “M.N.” tazkirasida yozishicha, sodda va oddiy yigit bo‘lgan hamda xoksor va ochiq kishilar suhbatini afzal ko‘rgan. O‘zi oddiy yigit bo‘lishiga qaramay, ba’zi-ba’zida go‘zal va yetuk she’rlar yozgan. Quyidagi bayt shular jumlasidandir:

Menamoyad gohi javlon na’li
shabrangat ba chashm,
Chun mahi nav k-az nazar sozand
mardum g‘oyibash.

Tarj.: Kishilar yangi oyni ko‘zlaridan qochirganlaridek, qora otingning na’li ham ba’zi-ba’zida elas-elas ko‘zga tashlanadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

Z.R.

MAVLONO SA’DUDDIN (t.y.n., Bahrobod – 1493/94, Mashhad) – taniqli tasavvuf shayxi. N. zamondoshlaridan. Shoir uni o‘zini duo qilgan azizlar qatorida sanab o‘tadi. Chunonchi, “N.M.”da o‘qiymiz: “Bahrobodning Ravniz otlig‘ kentidin erdilar. Donishmand va muttaqiy erdilar. Kichik yoshidin taqvoy-u zuhd bila o‘tkarib erdilar. Hirot shahrida Hazrat Maxdumiy (n.m.n.) bila ko‘p suhbat tutubdurlar. Va tahsil ayyomida bila hamsabaq o‘qubdurlar. Va Mir Izzudin Tohir Nishoburiyning shogirdi erdilar. Va Shayx Sa’duddin Hummuyi (r.)ning avrodin o‘qur erdilar. Va qirq yilg‘a yaqin Mashhadi muqaddasayi rizaviyada sokin erdilar. Va hayotlari muddatida “Faroziy” adosidin so‘ngra “Tafsir” bila “Hadiyo”qa mashg‘ul bo‘lurlar erdi. Va el bila ixtilot qilmas erdilar. Va dunyo so‘zi alar majlisida o‘tmas erdi. Alar suhbatig‘a yetib, so‘zlarin eshitgan kishiga Hazrat Rasul (s.a.v.) va buzurgvor as’hobining tariqi yod bo‘lur erdi. Ba’zi muxtalif mozohib ahliki, alar tavrida taassub g‘olib bo‘lur, Mavlononing buzurglukida hech so‘zlari yo‘q erdi. Bu haqir borasida ko‘p xayr duolari qilibdurlarki, aning bila bag‘oyat umidvormen. Sharif sinlari to‘qson yettiga yetti, to‘qquz yuzda dunyodin o‘ttilar. Va qabrlari Mashhadning bozasida Ali Zaynuddinning xonaqohi ollidadur”.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

E.O.

MAVLONO SOYILIY (XV asr 2-yarmi, Qarshi – v.y.n., Hirot) – xattot. Ilm tahsili u-n Hirotga kelib, shu yerda muqim yashab qolgan. N. “M.N.” tazkirasida ma’lumot berishicha, u kabi tez yozadigan kotibni hech kim eshitmagan. Har kuni 500 bayt she’rni osonlik b-n ko‘chirgan. Turkiy qavmga mansub oddiy va sodda yigit kabi ko‘rinsa-da, aslida unday emas edi. Devon ham tartib bergan. Quyidagi matla’ uning qalamiga mansub:

Na bar zaxmash dilam paykoni on
abro‘ kamon dorad,
Ki, bahri zaxmi digar obi hasrat dar
dahon dorad.

Tarj.: U kamon qoshli yor kiprigining o‘qidan dilimda jarohatgina emas, yangi jarohat u-n go‘yo og‘zida hasrat suvini tutib turibdi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Муҳаммад Н. Насаф ва Кеш алломалари. – Т., 2006.*

E.O., D.A.

MAVLONO SOLIMIY (XV asr, Iroq – Hirot) – shoir. Boshlang‘ich ma’lumotni otasi huzurida oladi. So‘ng tahsilini kamolga yetkazish maqsadida Hirotga keladi. G‘azalnavislik va muammogo‘ylikda yuksak mahorat hosil qilibgina qolmay, xattotlikda ham mohir edi. Musiqaga oid risolasi ham bo‘lgan. She’rlaridan parchalar tazkira va to‘plamlarda uchraydi.

N. “M.N.” tazkirasida ma’lumot berishicha, ilm tahsili u-n Hirotga kelib, ko‘p fazl-u kamolot kasb etgan. She’r, muammo, xattotlik sohalarini o‘zlashtirishga harakat qilgan. Sozlardan ud va tanbur chalishni o‘rganib, kuylar ham bastalagan. Ta’bini ham, xulqini ham ta’riflab, ijodidan namuna sifatida bir matla’sini keltiradi:

Chunonchi ba suvrati on oftob hayronam
Ki, tig‘ agar zanadam, chashmi
xud napo‘shonam.

Tarj.: Ul quyoshning suratiga shunchalik mahliyomanki, agarda menga tig‘ ursalar ham ko‘zimni yummay turaveraman.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 3. – Душанбе, 2004.*

E.O.

MAVLONO SOG‘ARIY (XV asr, Sog‘ar – Hirot) shoir. O‘z davrining iste’dodli shoiri bo‘lgan. Hirot adabiy muhitida o‘ziga xos e’tibori va hurmati bo‘lgan. Garchi o‘zi yaxshi she’r yozmasa-da, Hirot shoirlariga aralashib yurgan. Tirikchilik u-n yetarli mol-mulki bo‘lsa-da, juda baxil bo‘lgan. Abdurahmon Jomiy u b-n ko‘p hazil-mutoyiba qilgan. N.ning “Xam.M.” asarida keltirilishicha, bir kuni Jomiy uning ustidan kulib turib, she’rlarini maqtagan. U esa bundan kibrlanib ketib, dabdaba b-n she’rlaridan o‘qigan. N. ham M.S.ni ham yaxshi she’r yozish, ham o‘z she’rlarini ifodali o‘qishda maqtaydi. Shundan Jomiy kulib: “U bizni o‘yin qilyapti”, – deydi va quyidagi qit’asini o‘qiydi:

Sog‘ariy meguft: duzdoni maoniy
burdaand,
Har kujo dar she’ri man yak ma’niyi
xush didaand.
Didam aksar she’rhoyashro,
yake ma’no nadosht,
Rost guftast in, ki ma’nihoyashro
duzdidaand.

Tarj.: Sog‘ariy aytar ediki: “Ma’no o‘g‘rilari qayerda mening she’rimda yaxshi bir ma’no ko‘rsalar, darhol o‘g‘irlab oladilar”. Aksar she’rlarini ko‘rdim – biror-bir ma’nosi yo‘q, ma’nolarimni o‘g‘irladilar, deb to‘g‘ri aytgan ekan.

N. “M.N.” tazkirasida agarchi o‘zi yomon she’r yozsa ham, mana bu matla’si yaxshi chiqqan edi deb, uni namuna sifatida keltiradi:

Chashmi durbori man-u abri bahor ast yake,
Nolayi zori man-u savti hazor ast yake.

Tarj.: Mening dur sochuvchi ko‘zim-u bahor buluti, mening oh-u zorim-u bulbul nolasi go‘yoki birdaydir.

Sermahsul shoir bo‘lsa-da, bizgacha uning ijodidan juda oz narsa yetib kelgan.

Hirot adabiy muhitida M.S. b-n bog‘liq hangomalar ham ko‘pchilikni tashkil etadi. Shulardan biriga ko‘ra, Jomiy haj safariga otlanganida, M.S. va Vaysiy unga hamroh bo‘lmoqchi bo‘ladilar. Ammo Vaysiy eshagi yo‘qligini bahona qilib, M.S. ham yana bir bahona b-n – ikkalasi ham

safardan qoladilar. Shu munosabat b-n Shayxim Suhayliy aytgan quyidagi qit'a el ichida juda mashhur bo'lib ketadi:

Vaysiy-u Sog'ariy ba azmi haram,
Gashta budand har dushon safari.
Lek az on rah har du vo mondand,
On yak az be xari-yu in zi xari.

Tarj.: Vaysiy b-n Sog'ariy ikkalasi Ka'ba safari qilmoqchi edilar, lekin birining eshagi yo'qligi, ikkinchisining esa o'zi eshakligi tufayli har ikkovi ham safardan qoldilar.

Xiyobon mavzeyida dafn etilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик. 9 жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Хамсат ул-мутаҳаййирин. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 3. – Душанбе, 2004.*

E.O., M.A.

MAVLONO SOLIHIY (XV asr) – shoir. N. "M.N." tazkirasida ma'lumot berishicha, asli xurosonlik bo'lib, Hisori Shodmon hokimining kitobdori edi. Bungacha binokor usta sifatida nom chiqargan. Ko'ngliga she'r havasi tushgach, aruzni o'rganib, badiiy san'atlardan ham xabardor bo'lgan. Devoni saqlanib qolgan. N. ijodidan namuna sifatida uning bir matla'sini keltiradi:

Agar, ey sham', shabe hamnafasi man boshi,
Chi duo behtar az in, astki ravshan boshi!

Tarj.: Ey sham, agar bir kecha mening hamnafasim bo'lsang, yanada yorug'roq bo'l degandan ham ortiq duo bormi?

Yangilik izlashga moyil shoirning ohorli timsol-u tashbehlarga boy she'rlari Xuroson va Kichik Osiyoda ham mashhur bo'lgan. Hakimshoh Qazviniy uning o'ziga xos badiiy kashfiyotlaridan biri bo'lgan g'azalini namuna sifatida keltiradi:

Nozam ba chashmi xud, ki jamoli tu dida ast,
Aftam ba poyi xud, ki ba ko'yat rasida ast.

Tarj.: Men sening jamolingni ko'rgan ko'zlarim b-n faxrlanaman. Ko'yingga yetgan ayoqlarimga bosh uraman.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик. 9 жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 3. – Душанбе, 2004.*

E.O.

MAVLONO SONE'IY I (Taxallusi. Ismi: Alouddin Ali) (t.y.n. – Hirot – v. 1486, Hirot) – shoir, davlat arbobi. O'z davrining fozil kishilaridan bo'lib, Husayn Boyqaroning vaziri edi. Davlat boshqarish va siyosat bobida N. b-n ixtilofda bo'lgan. Podshoh g'azabiga yo'liqib, 6 oy Ixtiyoriddin qal'asida mahbus bo'ladi va oxir-oqibat zindonda qatl etiladi. "Zulm va badnafslig'i jihatidin podshoh siyosatig'a giriftor bo'ldi va maqtul bo'ldi", – deb xabar beradi N. bu haqda "M.N." tazkirasida.

7 ming baytdan ziyod hajmdagi devoni asosan g'azal, qasida va qit'alardan iborat. Ko'plab masnaviylar ham yozgan. Jomiy b-n yaqin munosabatda bo'lgan. Jomiy ta'rifida quyidagi misralarni bitgan:

Ba tu har gah u da'vi mekunad,
Chi da'viye, bema'ni mekunad.
Turo meva ist shirin-u urost talx,
Chu sebi Samarqand-u oluyi Balx.

Tarj.: Kimki senga da'vo qilsa, bu b-n u ahmoqlik qilgan bo'ladi. Chunki Samarqand olmasi kabi sening mevang shirin-u Balx olxo'risi kabi uning mevasi achchiqdir.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик. 9 жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 3. – Душанбе, 2004; Ғиёсиддин ибн*

Ҳумомиддин Хондамир. Ҳабиб ус-сияр фи ахбори афрод ал-башар. 4-жилд. – Теҳрон, 1954.

E.O.

MAVLONO SONE'IY II (taxallusi. Ismi va nisbasi: Pirmuhammad Toshkandiy) (t.y. va v.y.n., XV a. 2-yarmi – XVI asr boshlari, Toshkent – Hirot) – xattot. 1576-y.da N.ga bag‘ishlangan "Muammoyi Mirhusayn" risolasiga mukammal sharh yozib, uni o‘zi chiroyli husnixat b-n kitobat qilgan. Beruniy nomidagi Sharqshunoslik markazida bu asar 1863 raqami ostida saqlanadi.

Ad.: *Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 2. – Душанбе, 1989.*

E.O.

MAVLONO SOHIB BALXIY (XV asr) – shoir, musiqashunos. Iste'dod va fazl sohibi edi. N.ning "M.N." tazkirasida yozishicha, she'riyatda mahoratli bo‘lib, advor va musiqa ilmida ham komil bo‘lgan. O‘z g‘azallariga o‘zi kuy bastalashi ham uning fazilatidan dalolat beradi. Jumladan, "Chorgoh" amali mashhur bo‘lgan. Temuriy shahzodalardan Jo‘gi mirzo o‘z majlislarida faqat shu amalni ijro ettirgan.

G‘azal va qasida janrlarida ijod qilgan. Badaxshon shohlari va Termizning ulug‘ sayyidlariga bag‘ishlab badiiy barkamol qasidalar bitgan. Jumladan, u Amir Sayyid Ali Akbar Termiziyga yozgan qasidasining matla'si quyidagicha:

Dar vaqti tabassum labi jonparvari dilbar
Chu rishtayi olest dar o‘ siy-u du gavhar.

Tarj.: Dilbarning jonparvar labi tabassum chog‘ida o‘ttiz ikki marjon tizilgan qizil rishtaga o‘xshaydi.

Salmon Sovajiyning masnu' qasidasiga aytgan javobida o‘zining qanchalik mahorat sohibi ekanligini ko‘rsatgan. Boshqa bir qasidasiga ham yaxshi javob aytgan. Uning matla'si quyidagicha:

Zi qomati tu ba olam qiyomate barxost,
Qiyomatest qadat gar buvad qiyomat rost.

Tarj.: Sening qomatingdan jahonda qiyomat qo‘pdi. Qiyomat deganlari agarda rost bo‘lsa, sening qomating o‘sha qiyomatdir.

G‘azallaridan quyidagi matla'si mashhur bo‘lgan:

Tuyi koni namak-u mo sho‘rbaxton,
Xudo in dod moro-yu turo on.

Tarj.: Sen tuz konisan-u biz esa sho‘rbaxtlar – Xudo senga uni berdi-yu, bizga buni.

Tabiatida tama g‘olib bo‘lganligi u-n ahli fazl oldida e'tibori kamroq bo‘lgan. Oshpaz va novvoylardan osh va non tilanib yegan. Bu haqda uning o‘zi bir qit'asida shunday degan ekan:

Magasi murda bud qaylayi ro‘yi osham,
Shubushi zinda bud kunjudi ro‘yi nonam.

Tarj.: Oshimning qaylasi o‘lgan chivinlar-u nonimning ustidagi kunjut tirik bitlar edi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар бўстони. – Т., 1981.*

M.A., E.O.

MAVLONO SUBHIY (XV asr) – shoir, xattot. O‘ba tumanining Go‘yon chashmasidan. N. "M.N." tazkirasida uning Mavlono Muhammad Badaxshiy vositasi b-n o‘ziga yaqinlashgani haqida ma'lumot beradi va she'rlari badiiyatdan xoli emasligini aytib, ijodidan namuna sifatida bir matla'sini keltiradi:

Mohi man, imshab ba nuri xesh in koshonaro
Soz ravshan, v-arna otash mezanam in xonaro.

Tarj.: Ey mening oy yuzli go‘zalim, husning nuri bilan bu kecha uyimni ravshan qilmasang, men unga o‘t qo‘yib, (kulini ko‘kka sovuraman).

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

S.G‘., E.O.

MAVLONO SULAYMONIY (XV asr) – shoir. Abulqosim Bobur xizmatida bo‘lgan. Badiha she’r aytishda tengsiz edi. N. “M.N.” tazkirasida Xo‘ja Hofizning:

Yod bod on ki sari ko‘yi tuam manzil bud,
Didaro ravshani az xoki darat hosil bud.

Tarj.: Sening ko‘yingni manzil tutgan, ko‘zim eshiging tuprog‘idan ravshan kunlarni unutma – matla’li g‘azaliga yaxshi tatabbu’ qilganini aytib, uning matla’sini keltiradi:

Halli on nukta ki bar piri xirad mushkil bud,
Ozmudem ba yak jur’ayi may hosil bud.

Tarj.: Aql piri hal qilishi mushkul bo‘lgan muammoni bir qatra may oson hal qilishini sinab ko‘rdik.

N. kishilar bu g‘azalni shoira Mehriga nisbat berishlari, lekin o‘zi ishonchli kishilardan tahqiq qilib ko‘rgani va M.S.ga mansubligini aytib o‘tadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

M.A.

MAVLONO TARXONIY (XV asr, Andxud) – sipohiy bo‘lib xizmat qilsa-da, har ikki tilda – turkiy va forsiyda she’rlar ham mashq qilib turgan. Abdurahmon Jomiyning:

Ey zi mushkin turraat bar har dile bandi digar,
Rishtayi jonro ba har mo‘yi tu payvandi digar.

Tarj.: Sening mushk isli kokiling tufayli har bir dilda bir tugundir. Sochingning har bir tolasiga jon rishtasidan boshqa bir payvanddir – matla’li g‘azaliga quyidagicha javob aytgan:

Murg‘i dil par kandam-u az sina biryon soxtam,
To kasham peshi sagat har lahza parkande digar.

Tarj.: Itingning oldiga har lahza boshqa bir go‘sht parchasini tortish uchun ko‘ngil qushining patini yulib, ko‘ksim o‘tida qovurdim.

Samarqandda ba’zi xizmatchilar bandga tushganida aytgan g‘azalining matla’si quyidagicha:

Tushgali band ichra bo‘ldum ul pari devonasi,
Ko‘k saro fonusdur, ul sham-u men parvonasi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

E.O.

MAVLONO TOLIB JOJARMIY (XV asr, Jojarm – Sheroz) – shoir. Forsiy g‘azal ustodlaridan. Shayx Ozariyning shogirdi. U yoshligida safarga chiqib, Sherozda muqim bo‘lib qoladi. She’rlari Fors mulkida katta shuhrat qozonadi. Sa’diy Sheroziy g‘azallariga tatabbu’ qilgan. Shunday tatabbu’laridan birining matla’si bu:

Dida az didori xo‘bon bargiriftan mushkil ast,
Har ki moro in nasihat mekunad, behosil ast.

Tarj.: Go‘zallar yuzidan ko‘zni olish mushkul. Kimki bizga bu borada nasihat qilsa behudadir.

M.T.J. unga shunday tatabbu’ qiladi:

In, ki be ro‘yi tu moro zindagoni mushkil ast,
Talxiyi dog‘i firoqat ham chu zahri qotil ast.

Tarj.: Sening yuzingsiz bizga tiriklik mushkuldir, firoqing dog‘ining achchiqligi misoli zahri qotildir.

Sherozda “Go‘y va Chavgon” nomli munozara yozib, shahzoda Abdulloh ibn Ibrohim Sultonga taqdim etadi. Shahzoda uni katta tuhfa b-n siylaydi.

Vasiyatiga ko‘ra, uni Hofiz Sheroziyning oyog‘i tomonga ko‘mganlar. N. “M.N.” tazkirasida uning qabr toshiga bitilgan quyidagi ruboiysini yod olganini aytadi:

Dar ko‘chayi oshiqi ba paymoni durust,
Meguft ba man ahli dile ro‘zi naxust:

Tolib, matalab kase, ki o‘ g‘ayri tu just,
Tu tolibi o‘ bosh, ki o‘ tolibi tust.

Tarj.: Oshiqlik ko‘chasida bir dil ahli menga boshdanoq qat’iy qilib aytgan edi: “Ey Tolib, sendan boshqani izlaganni sen istama. Sen o‘zingning tolibing bo‘lgan kishining tolibi bo‘l.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Давлатшоҳ Самарқандий. Тазкират уш-шуаро. Теҳрон, 1338 (ҳ.-ш.).*

E.O.

MAVLONO TUSIY (vafoti 1464) – sohibdevon shoir bo‘lib, hassos she’rlar yozgan. G‘azal va masal yozishda mahoratli bo‘lgan. Masal yozishda Shukriy, Rafiqiy kabi zamondoshlari unga izdoshlik qilganlar. She’rlari ommafahmligi b-n ajralib turgan. Abulqosim Bobur zamonida shuhrat qozongan va sultonning alohida hurmat ehtiromiga sazovor bo‘lgan. Unga bag‘ishlab “sarv” radifli qasida bitgan. Uning matla’si quyidagicha:

On, ki boshad bandayi on qaddi
chun shamshod sarv,
Dar chaman chun bigzari bar po
jahad oz od sarv.

Tarj.: Kimki u qaddi shamshod kabi sarvning bandasi bo‘lsa, chamandan o‘tganida ozod sarv o‘zini uning oyog‘i ostiga tashlaydi.

N. “M.N.” tazkirasida uning mashhur matla’laridan 2 tasini keltiradi. Ulardan biri quyidagicha:

Zihi no‘shi labi la’lat hayoti jovidoni man,
Ba dandon megazi labro, chi mexohi zi joni man?

Tarj.: Evoh, la’l kabi qizil shirin labing men u-n boqiy hayot edi. Labingni tishingning ostiga olasan – mening jonimdan nima istaysan o‘zi?!

Abulqosim Bobur vafotidan so‘ng, Ozarbayjon tomonlarga ketib, Iroqqa borib qoladi. Jahonshoh b-n Shoh Budoq unga homiylik qiladilar. 100 yil umr ko‘rgan. Iroqda vafot etadi.

G‘azallar devoni ming baytdan iborat bo‘lib, Bombay va Tehronda Xoja Nasiriddin Tusiy devoni nomi b-n nashr etilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988; Давлатшоҳ Самарқандий. Тазкират уш-шуаро. – Хўжанд, 2015.*

E.O.

MAVLONO TO‘TIY TURSHEZIY (taxallusi. Ismi: Shahobiddin Ali) (t.y.n. – vafoti 1461/62) – shoir. Turshezda tug‘ilgan, lekin Hirotda yashab ijod qilgan. Xushgo‘y shoirlardan bo‘lib, Abulqosim Bobur mulozamatida tarbiyat topgan va shuhrat qozongan. Yaxshi xulqlik va fozil yigit bo‘lgan. Tib ilmidan ham xabardor bo‘lgan. Lekin yosh vafot etgan. “Ulcha qobiliyati bor erdikim, agar hayot topsa, xub nazmlar andin qolg‘ay erdi”, – deb yozadi N. afsus b-n. N. uning vafoti munosabati b-n ta’rix bitgan.

M.T.T. qasidada mahorat sohibi bo‘lgan. Xoqoniy Shirvoniyning mashhur “rexta” (“to‘kdi”) radifli qasidasiga javob aytgan. Lekin N.ning “M.N.” tazkirasida yozishicha, “Qasidada Mavlono Kotibiyg‘a tatabbu’ qilur erdi”. Uning pand-nasihat ruhidagi:

Agar ba chashm aqolim sab’a ganji zar ast,
Chun nek dar nigari, ajdahoi haftsar ast.

Tarj.: Agarchi ko‘zga iqlimlar yetti zar xazinasi bo‘lib ko‘rinsa-da, yaxshilab qarasang, yetti boshli ajdahodir matla’li qasidasiga quyidagi matla’li javob qasidasini aytgan:

Jahonki hujrayi shash toq-u xonayi du dar ast,
Zi chor rukni bisotash fig‘oni alhazar ast.

Tarj.: Bu dunyo olti toqli, ikki eshikli bir hujradir, uning to‘rt tomonidan “Alhazar!” (“Hazar qil!”, “Ehtiyot bo‘l!”) degan fig‘on eshitiladi.

N. M.T.T.ning g‘azallarini maqtab, yana bir matla’sini namuna tarzida keltiradi:

Go‘shayi xumxona az la’li ravon ganji safost,
Shakli chang az bahri daf’i g‘am dahoni ajdahost.

Tarj.: Mayxona burchagi la’lday may tufayli safo maskani hisoblanadi. Chang shakli g‘amni daf qilishi jihatidan ajdarhoning og‘ziga o‘xshaydi.

Badihago‘ylikda ham mashhur bo‘lgan. G‘azal yozishda ham mohir bo‘lib, o‘limidan oldin qabr toshiga yozishlari u-n bir g‘azal yozgan.

Vaqti on shud, ki dil azdomi havas bozrahad,
To‘tiyi ro‘h zi bedodi qafas bozra had.

Tarj.: Dil havas tuzog‘idan, jon to‘tisi qafas azobidan xalos bo‘ladigan fursat yetdi.

Qabri Xiyobonda.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Давлатшоҳ Самарқандий. Тазкират уш-шуаро. Хўжанд, 2015; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 3. – Душанбе, 2004.*

E.O.

MAVLONO ULOYI SHOSHIY (XV asr) − shoir, mudarris. Asli toshkentlik bo‘lib, Samarqandga kelib, Ulug‘bek madrasasida dars bergan. Madrasa zinasidan yiqilib, oyog‘i sinib yotganida, shogirdlariga qo‘shilib, N. ham uni ko‘rgani borgan va o‘sha yerning o‘zida “Ulo” nomiga muammo yozib, unga taqdim etgan:

Dur bod az tu dardi zahmati po,
Dushmanatro balo nasib-u ano.

Tarj.: Sendan oyoq og‘rig‘i dardi uzoq bo‘lsin, dushmaningga balo va mashaqqat nasib bo‘lsin.

Bemorning hol-ahvolini so‘rash davomida qisqa bir fursatda ushbu muammoning to‘qilishi N.ning ijodiy salohiyati yuksakligi va hozirjavobligini ko‘rsatib turibdi.

N. chiqib ketganidan keyin uning kimligini so‘rab-surishtirgan Uloyi Shoshiy uning nomiga muammo yozib, bir shogirdidan berib yuboradi:

Chashmi tu maro did-u manash ser nadidam,
Chun ser bubinam, zi tu in ast umidam.

Tarj.: Sening ko‘zing meni ko‘rdi-yu men uni to‘yib ko‘rolmadim, sendan umidim uni bir to‘yib ko‘rish.

N. “M.N.”da u haqida “donishmand kishi bo‘lib, xushta’bligini hamma e’tirof etar, Samarqand ahli muammoda uni Mavlono Sharafiddin Ali Yazdiyga teng tutar edilar”, deb yozadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Айний С. Алишер Навоий (А.Рустамов тарж.). //Танланган илмий асарлар. – Т., 1978; Абдуллаев В. Навоий Самарқандда // Сайланма. – Т., 1982.*

K.R.

MAVLONO FAZLIY (XV asr, Hirot) – naqqosh, shoir. N.ning “M.N.” tazkirasida ma’lumot berilishicha, yoshligidan naqqoshlik b-n shug‘ullanib, she’rga mayl ham ko‘rsatgan. O‘zini butunlay shoir deb tasavvur qilganidan keyin naqqoshlikni tashlab, shoir bo‘ladi. N. uning bir matla’sini namuna sifatida keltiradi:

Zohid, biyor xirqa-vu rahni sharob kun,
Asbobi zuhd-u xonayi taqvi xarob kun.

Tarj.: Ey zohid, xirqangni olib kel-u sharobga garov qil, shu yo‘l b-n zuhd vositalari-yu taqvo xonasini xarob qil.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

M.A.

MAVLONO FASIHUDDIN (to‘liq ismi: Mavlono Fasihuddin Muhammad Nizomiy Hiraviy, XV a., Hirot) − olim, faqih. N.ning ustozlaridan. U fiqh, falsafa kabi ko‘p ilmlarni M.F. huzurida o‘rgangan va uni oxund, deb ulug‘lagan. Xondamirning yozishicha, “qariyb 33 yildan beri hashamat egasi bo‘lmish amir Alisherning tarbiyat va siylashlari bilan ruhoniy ostonasining oxundi, islom mashoyixlari va jahon ulamolari hamda insoniyat fozillarining murojaatgohi va panohi, balki xos-u avomning majmui hisoblanadilar”.

N. “M.N.”da u Mavlono Nizomiddin Hiraviyning nabirasi bo‘lib, ularni nizomiylar derlar − Xurosonda bundan sharafliroq nasab yo‘q, deb ma’lumot beradi. Yigirma yoshida barcha ilmlarni egallab bo‘lib, o‘ttiz yilga yaqin vaqtdan buyon dars berish b-n mashg‘ul, zohir ilmidan u saboq bergan fan yo‘q deydi. O‘qitayotgan fanlarining ko‘pi bo‘yicha kitoblar ham yozgan bo‘lib, ular ulamo va talabalar orasida mashhur bo‘lgan. Ezgu xulq va yoqimli fe’li tufayli N.ning doimiy hamsuhbatlaridan bo‘lgan.

M.F. N.ning moddiy va ma’naviy homiyligi va qo‘llab-quvvatlashi ostida yashab ijod qilganligidan minnatdorchilik ramzi va sidq-u ixlos yuzasidan 7 ta asarini unga bag‘ishlagan. Ular quyidagilar: 1. “Hoshiyayi Muxtasar” (“Muxtasar” asari sharhi) − unda shariat qonun-qoidalari sharhlangan. 2. “Hoshiyai Chag‘miniy” (“Chag‘miniy asariga sharh”) − XII asr oxiri − XIII asr boshlarida yashagan Mahmud ibn Muhammad ibn Umar Chag‘miniyning “Al-musaxxas fil-hay’at” – “Astronomiyaga oid muxtasar kitob” asariga yozilgan sharh. 3. “Hoshiyayi sharhi hidoyai hikmat” (“Hidoya hikmatlariga sharh”) − mashhur faqih Burhoniddin Marg‘inoniyning fiqhga oid “Al-hidoya” (“Qo‘llanma”) asariga bitilgan sharh. 4. “Hoshiyai sharhi Ashkol” (“Ashkol” asari sharhi”) − XIII asr matematik olimi Shamsiddin Samarqandiyning “Ashkol at-ta’sis fil-handasa” (“Geometriya ilmida shakllar asosi”) kitobiga sharh. 5. “Ta’sis sharhi bist bobi usturlob” (“Astronomiyaning yigirma bobini sharh bilan asoslash”) − mashhur matematik va astronom Nasiriddin Tusiyning (1201–1273) “Bist bob dar ma’rifat ul-usturlob” (“Astronomiyani bilish haqida yigirma boblik kitob”) asari sharhi. 6. “Hoshiyayi Mavoqif” (“Mavoqif” asari sharhi) − unda haj payti Makkada hojilar turadigan joy Arafot tog‘i atrofi, uning diniy mohiyati, sharhlangan. Asarda, umuman, inson yashaydigan olam mohiyati ham izohlangan. 7. “Sharhi iat ul-omil” (“Yuz amaliy ishlar sharhi”) − unda shariatda muhim hisoblangan yuzta amaliy ish sharhlangan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Хондамир. “Хулосат ул-ахбор”дан // Навоий замондошлари хотирасида. − Т., 1985; Абдуқодиров А. Амир Алишер Навоий. – Хўжанд, 2013.*

E.O.

MAVLONO FASIHIDDIN SOHIBDORO – “Habib us-siyar”da keltirilishicha, Astrobod fozillarining sarasi bo‘lgan. Amir Alisherning vafotidan so‘ng Sulton Husayn Mirzo saroyiga xizmatga kirib, ushbu saroyning muborak kutubxonasi dorug‘asi etib tayinlangan.

Hazrat Sultonning yaqin kishisi vafotiga bag‘ishlab yozilgan qasida M.F.S. qalamiga mansub eng yaxshi she’rlardan hisoblanadi. Ushbu qasidaning barcha baytlaridagi birinchi misralarning ilk harflari jumal hisobida Amir Alisherning tug‘ilgan yilini, ikkinchi misralarining birinchi harflari esa ul hazratning vafot etgan yilini anglatadi. Shunga qaramasdan, bu narsa she’r mazmuniga va unda ma’noning ifoda etilishiga umuman xalaqit bermagan.

M.F.S. (hijriy-qamariy) 917 (milodiy 1511/1512) yilda Astrobod viloyatida olamdan o‘tdi.

“Habib” deb nomlangan quyidagi ruboiy-muammo ushbu shoir qalamiga mansub:

On turki pariypaykari xurshedliqo
Boshad payi toroji dilam ishvanamo.

Bingar dili vayroni moro, k-on ayyor
Dar dona nuhuft-u bozash ovard ba jo.

Tarj.: Yuzi quyoshdek va qaddi paridek bo‘lgan u go‘zal ishva qilib, bizning ko‘nglimizni talamoqni ko‘zlaydir. Qaragin, u ayyor bizning vayron ko‘nglimizni don ichra yashirdi-yu, yana o‘z joyiga olib kelib qo‘ydi.

Ushbu shoirning Amir Alisherga bag‘ishlangan bir qasidasi “Hirot adabiy jurnali”ning to‘qqizinchi yil, 4-sonida bosib chiqarilgan.

Ad.: *Ғиёсиддин ибн Ҳумомиддин Хондамир. Ҳабиб ус-сияр фи ахбори афрод ал-башар (Инсонлар қиссаларидан энг яхши таржимаи ҳоллар) 4-жилд // Устод Жалолиддин Ҳумоий нашрга тайёрлаган // – Теҳрон: 1954.*

K.R.

MAVLONO FAXRIDDIN (XV asr, Hirot) – shoir. “M.N.”da ma’lumot berilishicha, N.ga yaqin kishilardan bo‘lgan. Muammo yechishda mohir bo‘lib, ba’zida o‘zi ham muammo ijod qilgan. N. harakat qilsa, bu fanda katta natijalarga erishishi mumkinligini aytadi. “Haydar” otiga yozgan bir muammosini ijodidan namuna sifatida keltiradi:

Garchi az dilbaron jafo binam,
Shoyad az dilbare vafo binam.

Tarj.: Agarchi dilbarlar dastidan jafo ko‘rsam-da, shoyad bir dilbardan vafo ko‘rsam, deb umid qilaman.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

S.G‘.

MAVLONO XOVARIY (XV asr 2-yarmi – XVI asr boshlari) – shoir. Samarqand hunarmandlari adabiy doiralarida faol qatnashgan. Sho‘xta’b, hajvga moyil, hozirjavob shoir bo‘lib, yaxshi she’rlar yozgan. She’rlaridan parchalar yetib kelgan.

Shayboniylar saroyida ham bir muddat xizmat qilgan. Bir qator she’rlarida shayboniy hukmdorlar o‘rtasidagi fisq-u fujurni hajv qilgani u-n ularning ta’qibiga uchrab, Balxga qochgan.

Ad.: *Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 3. – Душанбе, – 2004.*

E.O.

MAVLONO XURRAMIY (XV asr, Hirot) – shoir. N. “M.N.” tazkirasida unga tanqidiy munosabatda bo‘ladi. Hirotning odamiyzodalaridan bo‘lsa-da, o‘zining tabiatida odamiylikdan asar ham, bo‘y ham yo‘qligini aytadi. Badmijozligi tufayli Xurosonda turolmay, Iroqqa boradi, undan Makka-yu Madina-yu Bayt ul-Haramga o‘tib, ko‘plab payg‘ambar-u avliyolar mozorini ikki qaytalab ziyorat qiladi. Shuncha ranj-u mashaqqat chekkaniga qaramay, tabiatan tuban va badbaxt bo‘lganligi tufayli safardan avvalgidan ham badfe’l va takabbur bo‘lib qaytadi. Uning ta’rifida til ojiz-u aql qosir. Shuncha yomonliklari ustiga yana she’r ham yozadi va birovni pisand qilmaydi, deydi hamda misol tariqasida bir matla’sini keltiradi:

Ovozayi ruxi gul to boz bar nayoyad,
Dar bo‘ston zi bulbul ovoz bar nayoyad.

Tarj.: Gulning yuzi haqida to yangi ovoza tarqalmaguncha bo‘stonda bulbuldan ham sado chiqmaydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

S.O‘., E.O.

MAVLONO XUSRAVIY (XV asr, Hirot) – shoir. Devoni el orasida tarqalgan bo‘lib, da’vosi baland, o‘zini katta tutadigan va tund tabiatli kishi bo‘lgan. N. “M.N.” tazkirasida bu haqda shunday yozadi: “Faqir qoshig‘a ba’zi mahalda she’r keltursa erdi, burunroq andoq kalom surar erdikim, daxl qilmoq yo‘li bog‘lanur erdi. Zaruratan barcha she’rin tahsin qilmoq kerak erdi... Bu matla’ aningdurkim:

Zi la'li yor dandone giriftam,
Hayote yoftam, jone giriftam.

Tarj.: Yorning labidan bir bo‘sa oldim-u bundan hayot topdim, jon oldim.

Hirotda vafot etgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

M.A.

MAVLONO SHAYXIY (XV asr oxiri – XVI asr boshlari) – bastakor, sozanda, xonanda, shoir. Xurosonning Tabas degan joyida tug‘ilgan. Ijodiy faoliyati Hirot va Iroqda kechgan. U sozandalikda, xususan, tanbur va qonun chalishda ko‘p yangiliklar qilgan. N. “M.N.” tazkirasida ma’lumot berishicha, bir muddat Iroqqa borib, musiqa ilmi va sozandalikda mohir bo‘lib qaytgan. “M.N.” tarjimonlaridan biri Muhammad Qazviniyning ilova qilishicha, M.Sh. Iroqda musiqa sohasida shuhrat qozonadi. Uning ikki g‘ulomi bo‘lib, ular jo‘rovozlikda ustozlarining asarlarini kuylaganlar. Birisi Siyohcha nomli hindu bo‘lib Rumga, ikkinchisi rumlik bo‘lib, Hindistonga ketadi. M.Sh.ning “Husayniy” “Ushshoq”, “Iroq”, “Navo” maqomlari yo‘lidagi “Tasnifi guli surx” (“Qizil gul navosi”), “Tasnifi oraz” (“Oraz kuyi”), “Davrai Ravon” usulidagi “Tasnifi Rost” (“Rost taronasi”) kuylari shuhrat qozongan. Musiqa nazariyasiga oid risolalar ham yaratgan. Sayfiddin Urmaviy, Xoja Abdulqodir Go‘yandalarning musiqaga oid asarlariga sharhlar bitgan. Ta’bi nazmi ham bo‘lib, quyidagi matla’ uning qalamiga mansub:

In na dog‘estki dar sinayi so‘zoni man ast,
Muhri ishq astki az mehri tu bar joni man ast.

Tarj.: Mening yoniq ko‘ksimdagi dog‘ emas, balki sening ishqing tufayli jonimga urilgan ishq muhridir.

N.ning ma’lumotiga ko‘ra, Tabasdagi vaqflar mutasaddiligi va shayxligini qabul qilib, umrining oxirida shu b-n mashg‘ul bo‘lgan.

Ad.: *Алишер Навоий. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 3. – Душанбе, 2004.*

E.O.

MAVLONO SHAMS MA’RUF – N. zamondoshlaridan. “Ahsan ut-tavorix” asarining muallifi Hasan Rumlu M.Sh.M. to‘g‘risida quyidagi ma’lumotlarni keltirgan: “... bu Mavlono Ma’ruf yaxshi xislatlarga ega bo‘lib, shirinso‘z va xushsuhbat edi. Kigizdan tikilgan to‘q sariq rangli kiyim, boshiga esa kigizdan tikilgan baland uchli qalpoq kiyib yurardi. U mudom Hirot yoshlari bilan birga edi. Biroq doimo qovog‘ini uyib, xo‘mrayib yurardi”.

M.Sh.M. Sulton Ahmad Jaloyirdan qochib, Isfahonga Iskandar Mirzoning oldiga boradi. Uning kutubxonasiga joylashib, bir kunda o‘ta go‘zal bir yarim ming bayt she’r yozadi.

Mirzo Boysung‘ur men uchun Nizomiy “Xamsa”sini ko‘chirib berasan, deya unga kerakli miqdorda qog‘oz beradi. Mavlono bu qog‘ozlarni bir yildan ortiqroq vaqt o‘zida saqlab turadi, biroq unga (Nizomiy “Xamsa”-sini) ko‘chirib yozmasdan, Mirzo Boysung‘urning oldiga qaytarib yuboradi. Bundan g‘azablangan Mirzo Boysung‘ur uni jazolashga ahd qilib, bir necha bor dor ostiga olib boradi, ammo osmaydi. Mavlono Shams Ma’ruf axiyri Ixtiyoriddin qal’asiga zindonband etiladi...”

Ad.: *Ҳасан Румлу. Аҳсан ут-таворих (Энг яхши тарихлар). Изоҳлар ва иловалар // Абдулҳусайн Навоий томонидан нашрга тайёрланган // – Теҳрон, 1970; Али Аҳмад Наъимий. Темурийлар даври Ҳирот мусаввирлари ва хаттотлари. – Кобул, 1949.*

K.R.

MAVLONO SHAMSIDDIN MUHAMMAD BADAXSHIY – shoir. Doimo chuqur va go‘zal ma’nolarni nazm ipiga tizishga va ushbu san’at qoidalari to‘g‘risida asarlar yozishga kuch-g‘ayrat sarflardi.

O‘ttiz yilga yaqin Amir Nizomiddin Alisher xizmatida bo‘lgan. Muammo san’ati to‘g‘risida bir necha risola yozgan.

Quyida uning qalamiga mansub bo‘lgan “Habib” nomli muammoni keltiramiz:

Turo tabxola bar labhoyi xandon,
Hubobe shud ba tarafi obi hayvon.

Tarj.: Sening kulib turgan lablaringga uchuq toshibdi. Bir don tiriklik suvi tomon uchib ketibdi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ғиёсиддин ибн Ҳумомиддин Хондамир. Ҳабиб ус-сияр фи ахбори афрод ал-башар (Инсонлар қиссаларидан энг яхши таржимаи ҳоллар) 4-жилд // Устод Жалолиддин Ҳумоий нашрга тайёрлаган // – Теҳрон, 1954.*

K.R.

MAVLONO SHIHOB – N. davrida yetishgan iste’dodli yoshlardan. Otasi Mavlono Nizom Malik xonaqohida yashagan tolibi ilm va faqir kishi bo‘lib, muammo b-n ko‘p mashg‘ul bo‘lgan. O‘g‘li M.Sh. ham muammo sohasida mashhur edi. Xondamirning yozishicha: “Muammo fanida tengqurlari va zamondoshlaridan mumtoz va mustasno” bo‘lgan. Iqtidorini hisobga olib, Kamoliddin Husayn Xorazmiyning Ixlosiya madrasasidagi hujrasini unga berganlar. N. “M.N.” tazkirasida uning “Jobir” ismiga yozilgan muammosini ijodidan namuna sifatida keltiradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985.*

E.O.

MAVLONO SHOH ALI (XV–XVI) – shoir. N. “M.N.” tazkirasida uning o‘z madrasasida tahsil olgani, o‘ziga yaqin kishilardan bo‘lganini ta’kidlab, “Xon” ismiga yozgan bir muammosini keltiradi:

Az g‘ami davroni vujudi ro‘zgor,
Xoham emin shud zi javri ro‘yi yor.

Tarj.: Yor yuzining jabrini deb, bu dunyo g‘amlarini unutishni xohlayman.

Prof. P.Ravshanov tazkiraga tayanib, M.Sh-.A. N.ning qarindoshi bo‘lganini yozadi. M.Sh-.A. N. madrasasida o‘qigan. Badiiy ijod b-n shug‘ullangan. N. yordamida Husayn Boyqaro saroyida eshik og‘asi vazifasida ishlagan. Aqlli, halol va mardona kishi bo‘lganini ko‘rgan Husayn Boyqaro uni beklik darajasiga ko‘taradi. M.Sh.A.ning Yunus Ali nomli o‘g‘li bo‘lib, otasi kabi donishmand, jasur, g‘ayratli va pokiza inson ekan. Yunus Ali Husayn Boyqaro vafotidan keyin Zahiriddin Bobur xizmatida bo‘ladi.

Som Mirzo Safaviyning “Tuhfai Somiy” tazkirasidagi ma’lumotga ko‘ra esa, M.Sh.A. chig‘atoy amirzodalaridan bo‘lib, ilm-u hunarda o‘z zamonasining peshqadamlaridan edi. Nasta’liq xatida mohir bo‘lgan. Kamon otishda ham tengsiz hisoblangan. Muammo, aruz va hadis ilmlarida ham shuhrat topgan. Sipohigarlikda ham benazir bo‘lgan. Umidiy degan shoirning qasidasiga javob yozgan. Quyidagi baytlar mazkur qasidasidan:

Ey ruxat dar sipehr zeboye,
Oftobe ba olami oroye.

Tu ba bozori husn Yusufi Misriy,
Mo tihikisahoi savdoye.

Tarj.: Ey sening yuzing olamda eng go‘zal bo‘lib, oftob kabi olamga oro beradi. Husn bozorida sen misrlik Yusufsan-u biz esa cho‘ntagi quruq gadolarmiz.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Тазкирау “Тўҳфаи Сомий”. – Теҳрон, 1347 (ҳ.-ш.).*

E.O.

MAVLONO YUSUF SHOH – Hirot shoirlaridan. Kitobat b-n shug‘ullangan. Shu sababli “Kotib” taxallusini olgan. “M.N”ning ikkinchi majlisida zikr etilgan. N. uni “faqir va yaxshi kishi erdi” deb ta’riflagan va ijodidan namuna sifatida bir forsiy baytini keltirgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

Q.E.

MAVLONO YAQINIY (XV asr 1-yarmi) − shoir. “O‘q va Yoy” munozarasi b-n mashhur. Majoziy uslubda yozilgan bu nasriy asarda O‘q va Yoy timsolida to‘g‘rilik va egrilik, manmanlik va kamtarlik, maqtanchoqlik va xoksorlik, xushomadgo‘ylik va haqiqatparastlik kabi ijobiy va salbiy xususiyatlar bir-biriga qarama-qarshi qo‘yiladi. O‘q − navqiron yigitga, yoy − qaddi xam qariyaga tashbeh qilinadi. O‘q barcha ezgu fazilatlarni o‘ziga, hamma salbiy illatlarni yoyga nisbat beradi. O‘qning talab va takliflaridan bezor bo‘lgan Yoy oqibatda tarxoniy zihgir va barlosiy kirish b-n o‘zaro ittifoq tuzib, O‘qni yetti qat yerga tiqib yuboradilar. Muallifning yozishicha, “bu munozaradin maqsud ulkim, bu davrning kajtablarining qolinda har kim yo(y)dek egri bo‘lsa, yonlaridin yiroq bo‘lmas va har kim o‘qtek rost bo‘lub, tuz yurusa, Yaqiniydek yiroq tushar...”

Ma’lum bo‘ladiki, muallif O‘q va Yoy bahonasida o‘zi mansub zamonni tanqid ostiga oladi: jamiyat yoydek egrilarning qo‘lida qoldi, ular kim o‘qdek to‘g‘ri bo‘lsa, o‘zlaridan uzoqlatadilar-u yoydek egrilarni o‘z himoyalariga oladilar, deydi zaharxandalik b-n.

M.Y. o‘z maqsadini amalga oshirish u-n Qosim Anvor, Muhammad Mag‘ribiy, Yusuf Amiriy, Atoyi, Xusrav Dehlaviy, Jununiy, Hofiz, Kamol Xo‘jandiy, Salmon, Sakkokiy, Lutfiy kabi Sharq so‘z san’ati zabardast namoyandalarining o‘q va yoy tashbehi asosiga qurilgan baytlari, qit’a va ruboiylaridan mahorat b-n foydalanadi. Muallif aytur deb, o‘z ijodidan ham namunalar keltiradi. Shu tariqa go‘zallarning qosh-u kiprigidan boshlangan bahs jamiyat muammolariga kelib taqaladi. Avval Pahlavon Mahmudga nisbat beriladigan quyidagi ruboiyni keltiradi:

Bo bad manishin-u ham marav xonayi o‘,
Dar dom biyafti chu xo‘ri donayi o‘.

Pir az sari rosti kamonro kaj did,
Didi, ki chi guna jast az xonayi o‘.

Tarj.: Yomon bilan birga o‘tirma, uning eshigiga borma, uning donasidan yesang, domiga tushasan. O‘q to‘g‘riligidan kamonni egri ko‘rib, undan qochishini ko‘r.

Asarni Asadiyning quyidagi qit’asi bilan yakunlaydi:

Har ki shud rost andar in maydon,
Har kujo raft, behuzur aftod.

Az kaji shud kamon ba pahlo‘yi shoh,
Tir az rosti ba dur aftod.

Tarj.: Bu dunyoda kimki rost bo‘lsa, qayerga bormasin, o‘rnini topmaydi. Yoy egriligidan shoh yonidan joy oldi, o‘q to‘g‘riligidan undan uzoqqa tushdi.

“O‘q va Yoy” munozarasi b-n M.Y. turkiy va forsiy adabiyotdagi munozara janridagi asarlar tajribasidan samarali foydalanib, uning imkoniyatlarini kengaytiradi, janr rivojiga munosib hissa qo‘shdi. Asarning yagona qo‘lyozma nusxasi Britaniya muzeyida saqlanadi.

N. “M.N.”da “Mavlono Yaqiniy tundroq mashrabliq kishi erdi. Turkiy va forsiy she’r aytur erdi, − deb yozadi va ijodidan namuna sifatida bir turkiy va bir forsiy matla’sini keltiradi: “Turkchasidin bu matla’ni ko‘p mubohotlar bilan o‘qur erdikim:

Ohkim, jonimg‘a yettim yori nodon ilgidin,
Dod-u faryod ul jafochi ofati jon ilgidin.

Ammo forsiysidin bu matla’i yomon voqea bo‘lmaydurkim:

Subheki, dam ba mehr nazad yak nafas tuyi,
Naxleki, bor naxo‘rad az u hech kas tuyi.

Tarj.: Quyosh bir nafas ottirolmagan tong sensan, mevasidan hech kim totmagan daraxt sensan.

“Oxir damida beadabona so‘zlaridan tavba qilib, ahli saloh tariqi bila kechti, − deb yakunlaydi so‘zini shoir. − Umidkim, ma’fv bo‘lmish bo‘lg‘ay. Qabri Darayi du barodarondadir”.

“M.L.”da ham uni o‘zigacha o‘tgan iste’dodli shoirlar qatorida tilga oladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Яқиний: Ўқ ва Ёй // Муборак мактублар. – Т., 1987; Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. 3-нашри. – Т., 1976; Ўзбек адабиёти тарихи. 5 жилдлик. 1-жилд. – Т., 1977; Яқиний // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 10-жилд. – Т., 2005.*

E.O., Sh.R.

MAVLONO QANBARIY – nishopurlik shoir. O‘zi omiy bo‘lsa-da, she’r aytishda mohir bo‘lgan va she’rlari badiiy jihatdan go‘zal edi. Ma’nodor qasidalari b-n fazl ahlini ham hayron qoldirgan va ular bu borada uni sinab ko‘rib, salohiyatiga qoyil qolganlar. Mashhadda Imom Rizo ravzasida sokin bo‘lgan va ba’zida Hirotga ham kelib turgan. Abulqosim Bobur madhida go‘zal qasida aytgan va uning matla’i ushbu:

In guharho binki, dar daryoyi axzar kardaand,
Z-in mashoyil otashi xur binki, chun bar kardaand.

Tarj.: Bu gavharlarni ko‘rgilki, ko‘m-ko‘k daryoda hosil qilganlar, bu mash’allardan yolqinli quyosh yaratganlar.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Давлатшоҳ Самарқандий. Тазкират ушшуаро. – Теҳрон, 1338 (ҳ.-ш.).*

E.O.

MAVLONO QUTBIDDIN (v., 1497) – N. davrining mashhur tabibi bo‘lgan. Asli nasaflik bu hakimdan Pahlavon Muhammad tib ilmini o‘rgangan. “Mavlono Qutbiddinkim, bu mulkning mutaayyin tabibidur – bu fanni kasb qilib erdi”, – deb yozadi u haqda N. “H.P.M.” asarida. Xondamir “Xulosat ul-axbor” asarida yozishicha, “Vaqt-u zamonning Jolinusi, davr-u davronning Buqroti edi. Oliymaqom amir Alisherning zo‘r g‘amxo‘rligi va e’tibori orqasida shon-shuhrat cho‘qqisiga qadam qo‘yib, birmuncha vaqt onhazratning “Dor ush-shifo”sida dars berdi. Oxiri odamlarning ig‘vosi tufayli iste’fo berdi”.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳолоти Паҳлавон Муҳаммад. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985.*

E.O.

MAVLONO HALVOIY (XV asr, Samarqand) – shoir. N. “M.N.” tazkirasida ma’lumot berishicha, yamoqchilik b-n tirikchilik qilgan. Fe’li ochiq, kelishgan yigit bo‘lgan. Umri qisqaligi tufayli shuhrat tutib ulgurmagan. Quyidagi matla’ uning qalamiga mansub:

Zohido, qiblayi mo abro‘yi dildor avlo,
Tu-vu masjidki, turo ro‘y ba devor avlo.

Tarj.: Ey zohid, bizga dildorning qoshi qibla bo‘lgani yaxshi. Sen masjidda yuzingni devorga qilishni afzal ko‘rasan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

M.A.

MAVLONO HASANSHOH (taxallusi: Hasanshoh Hazzol) (t.y.n., Mashhad – v., 1499) – shoir. Hirotda tahsil olib, kamolga yetgan. Abdurahmon Jomiy va N. b-n yaqin do‘stona munosabatda bo‘lgan. G‘azal, qasida va ruboiy yozishda mohir bo‘lsa-da, ko‘proq hajviy she’rlari va mu-

toyibalari b-n shuhrat qozongan. U o‘z she’rlarida zamondosh shoirlarni tanqid ostiga olgan. Ko‘plab zamona ulug‘lariga bag‘ishlab madhiya va marsiyalar yozgan. Mudarrislik ham qilgan. Xondamir “Habib us-siyar” asarida bu shoirning nozik iste’dodi, shirinsuxanligi, har qanday majlisga fayz kirita olishini ta’riflab, yoshlik davrida Boysunqur Mirzoning o‘g‘li Sulton Muhammad xizmatida bo‘lgani haqida ma’lumot beradi. N. “M.N.” tazkirasida ijodidan namuna sifatida quyidagi baytini keltiradi:

Az labat yak suxan bixoham guft,
Suxane z-on dahan bixoham guft.

Tarj.: Labing ta’rifida bir so‘z aytishni istayman, og‘zing vasfida bir so‘z aytish istayman.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Ж. 3. – Д., 2004.*

E.O.

MAVLONO HOJI NUJUMIY – shoir, XV asr Hirot adabiy muhiti vakillaridan. Fors tilida ijod qilgan. “M.N.”ning ikkinchi majlisida M.H.N. haqida bir necha satrdan iborat qisqagina ma’lumot berilgan. Uning qayerlik ekani, nima ish b-n shug‘ullangani, qaysi ijtimoiy tabaqaga mansubligi haqida hech narsa deyilmagan. Ijodida hazil-mutoyibaga moyillik xususiyati yetakchilik qilgan. Qit’alar yozgan va ularning mazmuni ham, asosan, hazilomuz bo‘lgan. M.H.N. ning shaxs sifatidagi tabiati ham shunga mos edi. N. uni “Louboli (beg‘am, beparvo, shartaki, qo‘rqmas) kishi erdi” deb ta’riflaydi.

M.H.N. g‘azallar ham yozgan. N. tazkirada uning bir matla’sini keltirgan:

Boz iyd omad, biyo jonoki, qurbonat shavam,
Hamchu chashmi go‘sfand-i kushta hayronat shavam.

Bayt muallifning shoirlik mahorati va iste’dodidan dalolat berib turadi. Buni N. ham e’tirof etgan va uning she’rni keltirishdan avval yozgan “Ammo bu matla’si yaxshi voqe’ bo‘lubturkim...” degan so‘zlari shuni isbotlaydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

Q.E.

MAVLONO HOJI MUHAMMAD (t.y.n., Mashhad − 1507, Hirot) − olim, shoir, naqqosh, musavvir. Mashhaddan Hirotga kelib qolgan bu yigitni N. o‘z tarbiyasiga olgan. “M.N.”da uning xulqi va iste’dodini yuqori baholaydi. Men bilan doimiy hamsuhbat bo‘lib, farzand o‘rnida, balki undan ham azizroqdir, deydi. “Axloqda malakiydur, bashar surati bila kelgan va atvorda farishtadur, inson hay’atida zuhur qilg‘on”, − deb lutf etadi. Uning yozishicha, tab’i sof, tafakkuri yetuk. Zehni mushkullarni oson yechadi, ilm cho‘qqilarini egallashga sabri yetarli. Ba’zi-ba’zida nazmga ham mayl ko‘rsatadi. Quyidagi matla’ uning iste’dodi darajasidan bir namunadir:

Ey baso, tavbayi derinaki, chun tavbayi man,
Xo‘bro‘yon bishi kastand ba yak chashm zadan.

Tarj.: Mening qanchadan-qancha kechagi tavbalarimni go‘zallar (bugun) bir qiyo boqishda yakson qildilar.

Shuningdek, “Odil” ismiga yozilgan bir muammosini ham keltiradi.

Xondamirning “Xulosat ul-axbor”da yozishicha, turli fanlarni zo‘r mahorat b-n o‘zlashtirgan. Uning xayoli hamisha ajoyib kashfiyotlar ga to‘la edi. Jumladan, u bir sandiq soat yasaydi. Ichiga bir shakl o‘rnatdi. Har soatda u qo‘lida cho‘p b-n tashqariga chiqib, soat ustiga o‘rnatilgan kichik nog‘oraga urgan va zang ovozi eshitilgan.

Bir qancha vaqt N. kutubxonasi boshlig‘i bo‘lgan. 1499-y. Badiuzzamon huzuriga − Balxga ketgan. U yerda ham shahzodaning kitobdori bo‘lib

ishlaydi, naqqoshlik va musavvirlik b-n shug‘ullanadi. Umrining oxirini Hirotda o‘tkazadi. Shayboniyxon Hirotni zabt etganda vafot etadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Хондамир. Хулосат ул-ахбор // Навоий замондошлари хотирасида. Т., 1985; Норқулов Н. Темурийлар даври маданияти тарихидан лавҳалар. – Хоразм, 1996; Абдуқодиров А. Амир Алишер Навоий. Хўжанд, 2013.*

E.O.

MAVLONO HUMODUDDIN KALOBODIY – N.ga zamondosh so‘fiylardan. Sherozning Kalobod degan kentidan bo‘lgan. Hamisha zuhd-u taqvo b-n band edi. Donishmand-u akobirlar uning suhbatini orzu qilganlar. Zohir va botin ilmida zamonasining yagonasi edi. Shoir yoshligida u b-n uchrashgan va duosiga muyassar bo‘lgan. Qabri Sherozda. Bu haqda “N.M.”da ma’lumot beradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

Z.R.

MAVLONO HUMOYI – shoir. N. “M.N.” tazkirasida uning qayerlik ekani noma’lum, hamisha Iroqda bo‘lar edi, deydi. Som Mirzo esa uning asli kelib chiqishi turkiy qavmga mansubligi, Isfahonda yashab, shu shaharda vafot etgani haqida ma’lumot beradi. Hirotga bir kelib ketadi. Nihoyatda faqir, kamgap, hayotda hech narsaga erishmagan kishi ko‘rinsa-da, N.ning aytishicha, bir davrada shunaqangi ko‘p gapirib, baqir-chaqir qiladiki, ta’rifiga til ojiz qoladi. Lekin yaxshi she’rlari bor deb, o‘z tazkirasida quyidagi matla’sini keltiradi:

Jono, manam zi dasti firoqi tu murdaye,
Xun dar tanam namonda chu nori fushurdaye.

Tarj.: Ey jonon, firoqing dastidan men misoli murdaman. So‘ligan anor kabi tanimda qon qolmagan.

Yoki:

Alassaboh, ki mardum ba kor-u bor ravand,
Balokashon-u muhabbat ba ko‘yi yor ravand.

Tarj.: Tong chog‘i butun el o‘zining ishiga mashg‘ul bo‘lganida muhabbat dardiga chalinganlar yor ko‘yiga ketadilar.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Тазкираи “Тўҳфаи Сомий”. – Теҳрон, 1347 (ҳ.-ш.).*

E.O.

MAVOJIB – o‘rta asrlarda Sharq davlatlari askarlarga berilgan ta’minotning bir turi. Ma’lumki, xizmati u-n harbiylar, sipohiylar, lashkarboshilarni taqdirlashning har xil shakllari bo‘lgan. Iqto’, suyurg‘ol, ulufa va h.k. Suyurg‘ol tarzida, asosan, yer-mulk, viloyat yoki muzofotlar berilgan. Ulufa pul, oziq-ovqat, yem-xashakdan iborat bo‘lgan. M. atamasi esa naqd pul shaklida beriladigan oylik yoki yillik maoshni anglatgan.

Yuqorida tilga olingan ta’minot turlarining barchasi N. asarlarida tilga olingan. Jumladan, M. b-n bog‘liq lavhalar ham mavjud. “S.I.” dostonida N. Iskandarning Doro ustidan g‘alaba qozonganidan so‘ng Doro zamonida devondan M. oluvchi necha yuz ming kishininng barchasiga M.larini to‘lashda davom etganini yozadi. Uning buyrug‘i b-n devonda M. oluvchilarning ro‘yxati tuzilib, beriladigan M. miqdori aniqlangan:

Dedi shohi Dorofar-u Jamshidkuh,
Ki “Doro sipohidagi har guruh.

Sipahdor-u navvob-u hojib anga,
Ki, devondin ermish mavojib anga.

Muqarrar ne erkonni arz aylasun,
Aning fikrini shahga farz aylasun.

Bu ish b-n shug‘ullangan amaldorlar Iskandarga Doro zamonida M. turli vajlar b-n vaqtida to‘lanmagani, M.xo‘rlar belgilangan mablag‘-ning yarmini olganliklarini aytadilar. Shunda Iskandar ularning barchasini berishni buyuradi. Ro‘yxatga kirgan to‘rt yuz ming kishi M.larini to‘liq oladilar:

Mavojib olur to‘rt yuz ming kishi
Ki, chokarlik erdi alarning ishi.

Olib ganjidin barcha iqto’ini,
Muraffah bu nav’ etti atbo’ini.

Bundan tashqari, Iskandarning farmoni b-n ikki yuz ming kishining M.i ikki baravarga oshirildi:

Yana ikki yuz ming mavojibxo‘ri,
Bo‘lib birga iki mavojiblari.

Mavojib sipahg‘a chu taz’if etib,
Raiyat xirojini tansif etib.

Iskandarning bu ishlardan maqsadi nima ekani qo‘yidagi misralarda o‘z aksini topgan:

Dedikim: “Manga ganj emastur havas,
Sipoh-u raiyat – manga ganj, bas.

Agar ganj erur bahr-u kondin fuzun,
Va gar xud xizona jahondin fuzun.

Chu naf’ye emastur alardin gumon,
Alardur hamon, tosh-u tufrog‘ hamon”.

Bu o‘rinda N. Iskandar tilidan “menga ganj havas emas, raiyat va sipoh men uchun ganjdir” der ekan, insonlar va ularning manfaati hamma narsadan ustun turishi lozimligini ta’kidlaydi va yana bir bor o‘zining insonparvarlik g‘oyalariga sodiqligini namoyish etadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик. 8-жилд. – Т., 2011.*

Q.E.

MAVOLID – tug‘ilgan uch farzand, yaratiqlar: ma’dan (jamodot), o‘simlik (nabotot) va hayvonot olami. Yetti ko‘k va to‘rt unsur yerdagi yaratiqlarning paydo bo‘lishiga zamin hozirlagan, ya’ni yetti ko‘k b-n to‘rt unsurning birlashuvidan uch farzand – ma’dan (jamodot), o‘simlik (nabotot) va hayvonot dunyosi paydo bo‘lgan. Shuning u-n ham yetti ko‘kka “yetti ota”, to‘rt unsurga “to‘rt ona” nomlari berilgan:

Obo chu bularg‘a ot bo‘ldi,
Ul to‘rt ham ummahot bo‘ldi.

Aylab bu ato, anog‘a payvand,
Uch qilding arolarida farzand.

Har birining o‘zgacha sifoti,
Hayvoni-yu koni-yu nabotiy.

N. M. o‘rnida “uch natija”, “uch farzand” ifodalarini ham qo‘llaydi:

Ato yetti-yu, to‘rt qilding ano,
Natija uch etting bulardin yano.

Ishq yo‘liga kirib, toqlik maqomiga ko‘tarilgan kishi ko‘nglini nabotot, hayvonot, jamodot mayllaridan tozalaydi, chunki bu uchlik tanholikka to‘siqdir:

Ko‘nguldin ayla mavolid maylini kam-kam,
Bo‘lurg‘a fard mavoni’dururlar ushbu uchov.

Ad.: *Жумаева С. Ўзбек муттоз шеъриятида рақам рамзлари ва уларнинг маъно талқини. – Т., 2010.*

S.J.

MAVRIKIY – 582–602-yy.da hukmronlik qilgan Vizantiya imperatori. O‘z faoliyati davomida imperiyani mustahkamlashga, uni tanazzuldan saqlab qolishga intilgan. U 598-y.da Turk xoqonligi b-n sulh tuzib, ikki o‘rtada kelishuv munosabatlarini o‘rnatgan. 591-y.da lashkarboshi Bah-

rom Cho‘bina isyoni sababli uning oldiga qochib kelgan Eron shahzodasi Xisrav Parvezni yaxshi kutib olgan. O‘zining Maryam degan qizini berib, Xisravni kuyov qilgan. So‘ngra unga harbiy yordam ko‘rsatgan va Xisrav uning ko‘magi b-n Bahrom Cho‘bina ustidan g‘alaba qilib, hokimiyatni qo‘lga kiritgan. M. 602-y.da unga qarshi bosh ko‘targan Foka tomonidan o‘ldirilgan.

N.ning “T.M.A.” asarida ushbu imperator faoliyatiga doir qaydlar va ma’lumotlar mavjud. Boshqa hukmdorlar haqida so‘z ketganda kuzatilganidek, N. bu o‘rinda ham uni o‘z nomi b-n atamaydi, unvoni b-n qaysar deb tilga oladi, N. ning yozganlaridan ma’lum bo‘lishicha, Xurmuz (Xisrav Parvezning otasi, 579–590-yy.da podshoh bo‘lgan) hukmronligining oxirida Ajam zodagonlari uning siyosatidan norozi bo‘lib, undan yuz o‘girgan. Bundan foydalangan tashqi dushmanlar Ajamga har tomondan hujum qila boshlaganlar. N. ular orasida Rum qaysarini ham aytib o‘tadi. Xurmuz qaysarga (ya’ni Mavrikiyga) sovg‘a va hadyalar berib, urushning oldini olgan. Shuningdek, “T.M.A.”da zodagonlar tomonidan taxtdan tushirilgan otasi Xurmuz o‘rniga o‘tirgan Xisrav Parvez unga qarshi chiqqan Bahromi Cho‘binadan qo‘rqib, Rum qaysari oldiga borgani ham qayd etilgan. N. Xisravga otasi shunday maslahat berganini yozadi: “Parvez ko‘rdikim, Bahrom bila muqovamat qilur toqati yo‘qtur. Xurmuzdin istimdod qilib roy tiladi. Xurmuz bitib yubordikim, xazoyin bila o‘g‘lon-ushog‘-ingni berk qo‘rg‘onlarg‘a mazbut qilib, Rumg‘a borib, qaysardin madad tila! Parvez ul degandek qilib, ... qaysarg‘a panoh eltti”.

N.ning qaysar Xisravga qanday munosabatda bo‘lgani haqida yozganlari yuqorida Mavrikiy haqida tarixiy manbalarda va tarixchi olimlar tadqiqotlarida berilgan ma’lumotlariga mos keladi, ya’ni N. ham qaysar Xisravni yaxshi kutib olgani, unga qizini berib kuyov qilganini tasdiqlaydi. Shuningdek, uning Xisravga Ajam taxtini yana egallashda yordam berganini ta’kidlaydi.

N. “F.Sh.” dostonida Xisravning xotini Maryamni tilga oladiki, u imperator Mavrikiyning qizidir. Shu dostondagi Sheruya obrazining prototipi esa Xisravning Maryamdan bo‘lgan o‘g‘li Sheruya, imperator M.ning nevarasi edi.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8- жилд. – Т., 2011; С. И. Ковалев. История Рима. – Л., 1986; Лев Гумилев. Древние тюрки. – М., 2008; Ражабов Қ. ва бошқалар. Жаҳон тарихининг муҳим саналари. – Т., 2011.*

Q.E.

MAVT (ar.) – 1. O‘lim, ajal yetishi, vafot etish. Inson hayotining to‘xtashi. 2. Jon taslim qilish, jon berish jarayoni, vaqti. N. asarlarida Mamot va mavto kabi so‘zlar ham o‘lim, ajal ma’nosida keladi. N. “T.A.H.” asarida keltiradi: “... va Idris alayhissalomning mavtin kishi ko‘rmaydur. Ham shar’ ahli qoshida, ham tarix ahli olida aqida budurkim, ul tirikdur va bihishtdadurkim, kalomi olihi ondin xabar berurkim, “Varafa’nohu makonan aliyyan” (Va Biz uni yuksak martabaga ko‘tardik) (“Maryam” surasi, 57-oyat). “...Iso alayhissalom duo qilib, Tengri taolo ul mayyitqa ruh kiyurdi va o‘luk tirilgach, iltimos qildikim, duo qilg‘ayki, burung‘i holig‘a borg‘ay va mavt sakaroti bo‘lmagay. Ruhulloh duosi bila bu ish ham bo‘ldi va ruhulloh andin o‘tti”.

N. bir qator g‘azallarida mavt so‘zining sinonimi sifatida o‘lim kalimasi orqali lirik qahramonning turli ruhiy holatlarini hayotiy tashbehlar, tazodlar va qiyoslar vositasida ko‘rsatib beradi:

Hajrdin har dam qilur bu xotiri afgor xavf,
Zohir etkandek o‘lumdin har zamon bemor xavf.
Dard-u g‘am ahli o‘lum holi bo‘lurlar chiqqucha,
Kirsalar holim so‘rarg‘a kulbayi ahzonima.

N. komil bir musulmon sifatida o‘limdan so‘nggi hayot, ya’ni qiyomat voqealari, inson boshiga keladigan tashvishlar haqida bot-bot to‘xtalib o‘tadi. Xususan, insonning bu dunyodan iymon b-n ketishini ulug‘ saodat deb biladi. Uning o‘lim holatlari va o‘limdan keyingi jarayonlar haqida bir

qancha g‘azallari bor. Shunday g‘azallaridan birida shoir Yaratganga iltijo qilib, o‘lim onida unga shafqat qilishini, mehribon bo‘lishini, ayniqsa, iymon b-n jonini olishini zorlanib so‘raydi.

Yo Rab, o‘lg‘on chog‘da jonim jismi
vayrondin judo,
Ul bo‘lub mundin judo, sen bo‘lmag‘il ondin judo.

Chun judo bo‘lsam meni g‘amnok yo‘q-u bordin
Ne g‘amim, Sen bo‘lmasang men zori
hayrondin judo.

Naqdi jon chiqqanda imon
gavharin ko‘nglumga sol,
Aylagil jondin judo, lek etma imondin judo.

“H.A.”ning ikkinchi munojoti so‘nggida ham bandalikning, inson umrining samarasi iymon ekani, Tangridan o‘lim onlarida uning hamroh qilishini so‘rab, munojot qiladi:

Yo Rab, agar etsam o‘shul kunga jazm,
Yoki burun aylasam ul yong‘a azm,

Ul nafas imon manga hamroh qil,
Ko‘nglum aro mahvi sivalloh qil.

N. o‘lim farishtasi deganda Azroil (a.s.)ni, M. marazi iborasi orqali o‘lim kasalligi, davosiz xastalikni, mavt zahri deganda o‘lim sharbatini nazarda tutadi. Borur chog‘i kabi o‘zbekona ta’birlar b-n ham o‘limni, ajal onlarini ifodalaydi.

Ulug‘ mutafakkir shoirning “N.M.” asarida mavt – o‘limning tasavvufiy talqinlariga ham duch kelamiz. Mazkur asarda keltirilishicha, shayx Hotam Asam shunday degan: “...va ham ul debdurki, har kim bu yo‘lg‘a kirar, to‘rt o‘lumni o‘ziga tutmak kerak: Mavti abyaz (oq o‘lim) – va ul qorin ochlig‘idur va mavti asvad (qora o‘lim) va ul xalq izosig‘a sabr qilmaqdur va mavti ahmar (qirmizi o‘lim) – va ul nafs muxolafatidur va mavti axzar (yashil o‘lim) – va ul xirqag‘a yurunlar tikmakdur”.

Ad.: *Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик, 3 жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6 жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10 жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8 жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик, 2-жилд. – Т., 1983; Абдураҳмон Жалолиддин Суютий. Барзах ҳаёти. – Самарқанд, 2018.*

S.R.

MAV’IZA (MAVOIZ) – va’z, o‘git, pand-nasihat, tavsiya. M. ma’nosiga qarab ikkiga ajratiladi: 1) o‘git, pand-nasihat, tavsiya xarakteridagi mav’izalar; 2) diniy xarakterdagi mav’izalar. Umuman, M. aytuvchilar, M. aytuvchi notiqlar voiz deb atalgan. Diniy mavzudagi M.lar ko‘proq madrasa va jome’ masjidlarida o‘qilgan.

Sharq mumtoz adabiyotida ijodkorlar badiiy asarlarida yozgan hikmatomuz o‘rinlar bor. Ular adabiyotshunoslikda M. atamasi b-n yuritiladi. “Qobusnoma”, “Kalila va Dimna”, “Hibbat ul-haqoyiq”, “Mahbub ul-qulub” singari asarlar boshdan oxirigacha M.ga qurilgani u-n M.noma asarlar deb atalgan.

O‘rganishimizga ko‘ra, N. ham lirik, epik, nasriy usulidagi o‘ttizdan ortiq asarlarida ibratli, ta’sirli M.lar bitgan. U g‘azallarida nasihatgo‘y, nasihatchi, voiz kabi umumiy xarakterdagi obrazlarni yaratgan va murojaat san’atidan unumli foydalangan. “X.”da yozilgan M.lar o‘ziga xos bo‘lib, shulardan biri – N. muayyan shaxslarga qarata yozgan M.lardir. “F.Sh.”ning Shohg‘arib Mirzoga yoki “S.I.”da ukasi Darvesh Alibekka bag‘ishlab bitgan boblari fikrimiz isboti bo‘la oladi. N. ukasiga bag‘ishlangan bob sarlavhasida M. atamasini qo‘llagan va “mavoizaso kalom bitidim” deb aytgan. Chunonchi: “Hokimsurat-u darveshsiyrat, balki Darvesh ismi hukumat qism, ya’ni axaviy maobi davlat iyobka mavoizoso kalom va nasoyihi molokalom demak”.

N. shayxlar tilidan ular aytgan M.larni tamsil qilgan yoki ular kimdan M. eshitgan, o‘r-

gangan jihatlariga urg‘u bergan. Jumladan, N. Qo‘rqut ota haqidagi qisqa fiqrada uning so‘zlari, va’zlari M.omuz ekanligini ta’kidlab ko‘rsatgan. “Qo‘rqut ato (a.r.) Turk ulusi arosida shuhrati andin ortug‘roqdurki, shuhratqa ehtiyoji bo‘lg‘ay. Mashhur mundoqdurki, necha yil o‘zidin burunqini, necha yil o‘zidin so‘nggi kelurni debdurlar. Ko‘p mav’izaomiz mag‘izliq so‘zlari aroda bor”.

N. M.larining obrazli olami juda keng. Ularni ma’lum ma’noda, quyidagicha tasnif qilib o‘rganishimiz mumkin.

1. Payg‘ambarlardan Abulbashar deb sifatlangan Odam Atodan tortib to Muhammad (s.a.v.) tilidan aytilgan M.lar.

2. Hakimlar tilidan aytilgan M.lar. Luqmoni Hakim, Fisog‘urs kabi.

3. Shayx, orif, so‘fiy kabi buyuk siymolar nutqida keltirilgan M.lar.

4. Shoir, adib, muarrixlar so‘zlari b-n aytilgan mav’izalar. Buning isboti sifatida 459 nafar qalam ahli haqida yozilgan “M.N.” tazkirasini keltirib o‘tishimiz mumkin.

5. Hukmdorlar tilidan aytilgan M.lar. “T.M-.A.”da tasvirlangan peshdodiy, kayoniy, ashkoniy, sosoniy hukmdorlar tilidan aytilgan M.lar.

6. N. tilidan aytilgan o‘git va tavsiyalar.

Ad.: *Шамсиев П., Иброҳимов С. Навоий асарлари луғати. – Т., 1972; Илҳам Айверди. Мисалли Буюк Турксэ Созлук. – Анқара, 2005; Ҳакимов М. Шарқ манбашунослиги луғати. – Т., 2013; Фарҳанги забони тожик. 1-жилд. А-О. – М., 1969; Алишер Навоий. Насойим улмуҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Нурбоева М. Мавъиза хусусида. “Маърифат” газетаси. 2023, 1 ноябрь. №44.*

B.R., M.N.



MADALIYEVA Oysara Rustamovna (1988, Yangiyer) – filolog-sharqshunos. TDShU filologiya va tarix fakulteti mumtoz filologiya yo‘nalishida bakalavriat va magistratura (2008–2014) va shu universitet tayanch doktoranturasida mustaqil izlanuvchi sifatida tahsil olgan (2018–2020). O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida faoliyat yuritadi (2018-y.dan). M.O.R. “Alisher Navoiy devonlari qo‘lyozmalarining tarkibiy-qiyosiy tadqiqi (O‘zR FA Sharqshunoslik instituti fondi qo‘lyozmalari asosida)” mavzusida filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (2021) dissertatsiyasini himoya qilgan.

“Alisher Navoiy. G‘azaliyot devoni. 1492–1493-yil” faksimilesini nashr ettirgan (2021). M.O.R. “O‘zbekiston madaniy merosi. Alisher Navoiy asarlarining bezakli qo‘lyozmalari jahon to‘plamlarida” (2021) nomli kitob-albomlarning nashrga tayyorlovchilaridan biridir.

M.O.R.ning “Alisher Navoiy devonlari qo‘lyozmalarining tarkibiy-qiyosiy tadqiqi” nomli monografiyasi chop etilgan (2021). Kitobda Alisher Navoiy devonlarining O‘zR FA Sharqshunoslik instituti asosiy fondga oid XV asrdan to XX asrning 1-choragiga qadar ko‘chirilgan qo‘lyozmalaridan 20 ta va Hamid Sulaymon fondiga tegishli 2 ta qo‘lyozmasining tarkibi shoir devonlarining Turkiya, Eron, Buyuk Britaniya, Fransiya, Rossiya va AQShning ba’zi fondlarida saqlanayotgan nusxalari b-n qiyosiy o‘rganilib, manbashunoslik va matnshunoslikning tarixiylik, to‘liqlik, ishonchlilik prinsiplariga ko‘ra fonddagi boshqa nusxalarga nisbatan muhim ekanligi ochib berilgan. XIX asrga tegishli “Terma devon” nusxalarining birida boshqa devonlarga kirmagan ikkita g‘azal borligi aniqlangan.

Ad.: *Мадалиева О. (ҳаммуаллифлар: Васильева О.В., Улуч Л. ва бошқалар). Алишер Навоий асарларининг безакли қўлёзмалари жаҳон тўпламларида // Ўзбекистон маданий мероси.*

Китоб – альбом. – Т., 2021; Мадалиева О. Алишер Навоий девонлари қўлёзмаларининг таркибий-қиёсий тадқиқи. – Т., 2021; Алишер Навоий. Ғазалиёт девони (факсимиле). Нашрга тайёрловчи: Мадалиева О. – Т., 2021.

O.T.

MADID (ar. – cho‘ziq) – foilotun (2-hijo qisqa, qolganlari cho‘ziq – – V – –) va foilun (2-hijo qisqa, qolganlari cho‘ziq – – V – –) asllarining ketma-ket takroridan hosil bo‘ladigan bahr (foilotun foilun foilotun foilun – – V – – / – V – / – V – – / – V –). Bu bahr arab she’riyatiga xos bo‘lsa-da, turkiy she’riyatga ham begona emas. Chunki ramal bahrining turkiy she’riyatda eng keng tarqalgan vaznlarida ayni shu ruknlar mavjud. Shunga qaramay. M. bahri vaznlari turkiy she’riyatda qo‘llanmagan. N. “M.A.”da M.i musammani solim vazniga:

Ey qadingdin sarvg‘a ming xijolat
har nafas,
Sarv qaddingdin mening ko‘nglima
yuz ming havas, –

baytini misol sifatida keltiradi. Shu b-n birga, xalq orasida org‘ushtak usulida keng tarqalgan, arablarning tuya haydagandagi xirgoyisiga mos va madidi musammani solim vazniga tushadigan qo‘shiq degan janr haqida ma’lumot berib, quyidagi baytni misol keltiradi:

Vahki, ul oy hasrati, dard-u dog‘i furqati,
Ham erur jonimg‘a o‘t, ham hayotim ofati.

Bobur esa “Muxtasar” asarida uning 4 vazniga to‘xtalib o‘tadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Бобур. Мухтасар. – Т., 1971; Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т., 1998.*

E.O.

MADOYIN – Hozirgi Bag‘dod shahri yaqinida mavjud bo‘lgan qadimiy shahar. Yevropa tarixchilari uni Ktesifon deb atagan. Sosoniylar sulolasi hukmronligi davrida poytaxt bo‘lgan. VII asrda arablar tomonidan zabt etilgan va vayron bo‘lgan.

M. N. asarlarida ko‘p tilga olingan. N. ushbu qadimiy shaharning yangilanishi, qaytadan obod qilinishi sosoniylar sulolasiga mansub podshoh Shopuri Zuloktof (Shopur II, 309–379-yy) hukmronligi davriga to‘g‘ri kelishi haqida “T.M.A.”da ma’lumot bergan. Shuningdek, ushbu asardan sosoniylar davrida M.ning siyosiy markaz sifatidagi ahamiyati oshganini ham bilib olish mumkin. Jumladan, N. bir necha sosoniy podshohlar zikrida ularning M.ga kelib toj kiyganliklari haqida aytib o‘tgan. M-n, Yalosh binni Firuz zikrida uning M.da taxtda o‘tirgani haqida shunday yozadi: “Qubod hoqon cherikin ham andin qaytarib, haram bila o‘g‘lin olib, Madoying‘a yetib, podshohliqqa o‘lturdi”. No‘shiravon ul-odil zikrida N. uning poytaxti M. bo‘lgani va u bu shaharda mashhur Kisro toqini qurdirgani va adl zanjirini osganini qayd etgan. Shuningdek, N. ushbu shohning M. yaqinida Rumiya degan shahar ham barpo etgani haqida ma’lumot beradi. Bahromi Cho‘bina zikrida u “Bahrom Parvizg‘a qovg‘unchi yiborib, o‘zi Madoying‘a kelib, podshohliqqa o‘lturdi”, deb yozadi. Bahromni mag‘lubiyatga uchratgan Xisrav Parviz haqida “Bahrom ustig‘a kelib, Bahrom andin bosilib, qochib hoqon qoshig‘a bordi. Parvez Madoyin taxtig‘a o‘turib, ko‘p mamolikni xiytai tasarrufig‘a kiyurdi”, - deb ma’lumot beradi.

Ardasher binni Sheruya zikrida ham Shahrirod M.da toj kiyganligi aytib o‘tiladi: “Va cherik tortib kelib, ham Ardasher, ham Mehrijisni o‘lturib, Madoyin taxtida toj boshig‘a qo‘yub, podshohliqqa o‘lturdi”.

Shuningdek, N. “T.M.A.”da arab istilosi va sosoniylar saltanatining tugatilishi haqida yozadi va arab qo‘shinining xalifa Umar davrida M.ni istilo qilgani b-n bog‘liq ayrim ma’lumotlarni keltiradi.

M. faqat “T.M.A.”da emas, N.ning “F.Sh.” dostonida ham tilga olingan. Dostondagi personajlardan biri Farhodning raqibi Xisrav haqida

yozganda N. M. uning poytaxti bo‘lganligini qayd etadi:

Ajam birla Arab mulkida dovar,
Arab birla Ajamg‘a shoh-u sarvar.

Shahi erdiki, derlar oni Xusrav,
Mutii amri garduni sabukrav.

Jahon mulkin tutub xayl-u sipohi,
Madoyin mulki oning taxtgohi.

Shunday qilib, M. N. tasviri va talqinida qadimgi dunyoning, xususan, Sosoniylar davrining muhim siyosiy, madaniy markazi sifatida o‘quvchi ko‘z o‘ngida namoyon bo‘ladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. 10 жилдлик, 5-жилд, – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Всемирная история. – Минск, 2008; История древнего востока. – М., 2002.*

Q.E.

MADYAN – I. Joy nomi. Diniy manbalarda M. Nuh (a.s.) tomonidan Odam (a.s.)ning suyaklari dafn etilgan yer sifatida taxmin qilinadi. To‘fondan oldin Nuh (a.s.) kema yasab, imon keltirgan 80 kishi b-n kemaga kirganda Tangri taolodan “Odamning suyaklarini ham kemaga ol” degan yorlig‘ keladi. Nuh (a.s.) Tangri yorlig‘ini bajaradi. To‘fondan so‘ng suyaklarni bir yerda dafn qiladi va ayrim ulamoning fikricha bu M. yeri bo‘lgan, ba’zilari Najaf deganlar. N. “T.A.H.”da bu ma’lumotlarni keltirgan va shunday yozgan: “Va Nuh (a.s.) kemaga kirarda Odam (a.s.) so‘ngakin madfanidin chiqarib, kemaga kiyurib yerdi, kemadin chiqqanda, ba’zi debdurlar M. yerida, ba’zi derlar Najafda dafn qildi”. Asarda bu to‘g‘ridagi yana boshqa fikrlar ham qayd etilgan. Jumladan, bir o‘rinda N. Odam (a.s.)ning suyaklarini Nuh (a.s.) to‘fondan so‘ng Buqubays tog‘ida yoki Bayt ul-Maqdisda dafn etgani haqidagi so‘zlarni bildiradi: “Nuh alarning jasadlarini kemada asrab, to‘fondin so‘ngra Buqubays tog‘ida, ba’zi debdurlarkim, Bayt ul-Maqdisda dafn qildi”.

II. Shuayb (a.s.)ning otasi. “T.M.A.”da N. ushbu payg‘ambarning to‘liq ismini quyidagicha bergan: “Shuayb binni Madyan binni Ismoil (a.s.)”. Bundan Shuayb (a.s.)ning M.ning o‘g‘li ekani ma’lum bo‘ladi. Lekin M.ning kimning o‘g‘li ekani borasida ixtilof bor. Garchi N.ning yuqoridagi ma’lumotida “Madyan binni Ismoil (a.s.)”, ya’ni M. Ismoil (a.s.) o‘g‘li deyilgan bo‘lsa-da, Rabg‘uziyning “Qisasi un-anbiyo” asarida M. Ibrohim (a.s.)ning o‘g‘illaridan biri sifatida tilga olingan.

III. Yo‘ldan ozgan bir qavmning nomi. Ularni as’hobi M. deb ataganlar. Bu qavm orasida hiylanayrang, tarozidan urish singari ishlar avj olgan. Bundan tashqari ular qalbaki tangalar va pullar yasaganlar, o‘g‘rilik, qaroqchilik qilganlar. Tangri taolo ularni to‘g‘ri yo‘lga solish uchun Shuayb (a.s.)ni mabgus qilgan. Lekin qavm uning so‘zlarini qabul qilmagan va Tangrining g‘azabiga uchrab, barchalari o‘tda kuyib halok bo‘lganlar.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

Q.E.

MADHIYA (ar. – ta’rif, tavsif, vasf) – biror shaxs, voqea yo narsa ta’rif-tavsifiga bag‘ishlangan badiiy asar. An’anaga ko‘ra, Sharq mumtoz adabiyotida dostonlar muqaddimasi M. b-n boshlangan. Nizomiy, Dehlaviy, N. “X.”lari, Jomiy “Haft avrang”i shular jumlasidandir. Nasriy va nazmiy asarlar muqaddimasidan o‘rin olgan bir qism M.lar falsafiy-diniy ta’limot asoschilari, shoh-u amir-amaldorlar, do‘st-u yaqinlar, ustozlarga bag‘ishlangan. Ba’zida mualliflar asariga javob yozilayotgan u yoki bu shoir ta’rifida M. bitadilar. Jomiyning “Xiradnomai Iskandar”, N. ning “L.M.”, Hiloliyning “Sifot ul-oshiqin” asarlari muqaddimasida kelgan M.lar shu guruhga mansub. M. masnaviy, g‘azal, qasida, muxam-

mas, qit'a, musammat, ruboiy kabi she'riyatning ko'plab janrlarida yozilishi mumkin. Adabiyotshunoslikka oid ba'zi asarlarda M. faqat qasida ma'nosida keladi.

Ad.: *Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 2. – Душанбе, 1989; Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т., 2006.*

E.O., S.O.

MAHI NAXSHAB – N. she'riyatida qo'llangan timsol. Rivoyatga ko'ra, Muqanna nomi b-n mashhur bo'lgan hakim Ibn Ato simob va boshqa shu kabi moddalar aralashmasidan yasagan va Siyom tog'i etagidagi chohdan 2 oy mobaynida har kecha chiqaradigan va go'yo nuri 4 farsang (24 km) ga yetadigan oy. U Naxshab va Muqanna oyi nomlari b-n ham yuritiladi. "D.F."-dagi Amir Xusrav Dehlaviy g'azaliga tatabbusi matlasida N. ma'shuqa og'zi ta'rifida bu timsoldan foydalanadi:

Chashmayi zindagi omad dahani on mahi Naxshab,
Bahri serob shudan sabzayi xat rusta ba on lab.

Tarj.: U Naxshab go'zalining og'zi obi hayot chashmasiga o'xshaydi – bu tiriklik suvidan serob bo'lish maqsadida lablarining atrofida sabzaday xatlar nish uribdi.

Baytda ma'shuqaning og'zi obi hayot chashmasiga, labi atrofidagi mayin tuklari – xati esa uning atrofini tutgan maysaga tashbeh qilinyapti.

Ad.: *Алишер Навоий. Девони Фоний. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011.*

E.O.

MAJDIDDIN (v., 1494) – N.ning zamondoshi va siyosiy raqibi. Sulton Husayn Boyqaroning vaziri. Shohrux Sulton hukmronligi davrida xizmat qilgan mashhur vazir Pir Ahmad Havofiyning o'g'li.

M. o'z faoliyatini Sulton Abusaid mirzo saroyida boshlagan. O'sha vaqtda u insho devonida ishlagan. Sulton Husayn mirzo taxtga o'tirgandan so'ng (1969) M. uning jiyani Kichik mirzoga xizmat qilgan. 1472-y.da Husayn Boyqaro saroyiga ishga o'tgan va parvonachi etib tayinlangan hamda ko'p o'tmay podshohning ishonchini qozonib, vazirlik mansabiga o'tirgan. Bu vaqtda u b-n Nizomulmulk, Xoja Afzal singari saroy a'yonlari o'rtasida kelishmovchilik va raqobat yuzaga kelgan edi. Ularning sa'y-harakatlari natijasida M. vazirlikdan bo'shatilgan (1478). Shundan so'ng u ancha yillar davomida muhim davlat ishlariga aralasha olmagan. Garchi Husayn Boyqaro uni yana mansabiga tiklashni istagan bo'lsa-da, N. bu qarorni ma'qullamaganligi tufayli M. parvonachi vazifasini bajarishda davom etgan. N. Astrobod hokimi etib tayinlanganda, M. yana ko'tarilgan va shohning eng ishonchli kishisi bo'lib qolgan. Lekin bu hol ko'p davom etmagan, zero, unda rahbarlik layoqati yo'q, u odamlar b-n kelishib ishlash, ularning boshini qovushtirishni bilmas, o'z so'zini o'tkazishga intilar va tabiatan o'jar va qo'pol kishi edi. Uning fe'li va xususiyatlarini yaxshi bilgan N. aynan shu sababli M.ning yuksak lavozimda ishlashini maqsadga muvofiq deb bilmagan. Yuqoridagi salbiy jihatlari ustiga M. o'z mansabini suiiste'mol qilib, boylik to'plashga intilgan va shuning oqibatida vazifasidan bo'shatilib, jazoga tortilgan, mol-mulki musodara qilingan. Hibsdan ozod etilgandan so'ng u haj ziyoratiga otlangan va yo'lda vafot etgan (1495).

N.ning "B.V." devoni tarkibiga kirgan va "Barlosbek bila Xoja Majid bobida aytilibdur va duo qililibdur va mustajob bo'lubtur" deb sarlavha qo'yilgan quyidagi qit'a M. b-n bog'liq voqealarga bag'ishlangan:

Tutulmish edi Majid Barlos bekka,
Kim aytur edikim, bu yanglig' qutulg'ay.
Qutuldi ulu bu tutuldi, ilohiy,
Tutulg'on qutulg'ay, qutulg'on tutulg'ay.

N.ning boshqa ayrim asarlarida ham M. tilga olingan va uning shaxsiga, faoliyatiga munosa-

bat bildirilgan. Jumladan, “M.N.”da Xoja Afzal zikrida N. uning 15 yilga yaqin saroyda xizmat qilgani va M. uni podshohga yomon ko‘rsatgani tufayli mamlakatdan chiqib ketishga majbur bo‘lganini qayd etib shunday yozgan: “O‘n besh yilga yaqin hazrat Sultoni Sohibqiron qullug‘ida vazorat devoni aning ixtiyori edi. Majdiddin Muhammad buzug‘lig‘idakim, ahvolig‘a putur yetmagan kishi qolmadi, ani dag‘i podshohqa yomon ko‘rguzdikim, zaruratdin jalo ixtiyor qildi”.

Mavlono Olim zikrida M.ning noxolisligini, amalidan o‘z maqsadi yo‘lida foydalanishini ko‘rsatuvchi misol keltirilgan. Mavlono Olim devonga ariza b-n murojaat qiladi. Arizani M. ko‘rib chiqishi kerak edi. U esa Mavlono Olimga qarshi tomondagi da’vogarlarga yon bosar edi, shu sababli Mavlononing shikoyatini, hatto o‘qib ham ko‘rmaydi va buklaydi. N. Mavlono Olimning shu munosabat b-n bitgan quyidagi baytini keltiradi va bu she’r odamlar orasida mashhur bo‘lib ketganini ta’kidlaydi:

Kori moro Xoja Majdiddin Muhammad hech kard,
Kog‘azi moro naxond on ro‘z-u darham pech kard.

Tarj.: Bizning ishimizni Xoja Majdiddin Muhammad yo‘qqa chiqardi. O‘sha kuni u bizning qog‘ozimizni (arizani) o‘qimay, buklab qo‘ya qoldi.

M. haqida o‘sha davrga oid tarixiy manbalarda ham ma’lumotlar mavjud. Xolislik yuzasidan shuni ta’kidlash lozimki, ular orasida M. shaxsi va faoliyati haqida bildirilgan ijobiy fikrlar ham bor. Lekin, umuman olganda, ma’lumot va faktlarni o‘rganib, chuqur tahlil qilish N.ning unga va faoliyatiga munosabati-yu bahosining to‘g‘riroq ekanligidan dalolat beradi.

Ad.: *Хондамир. Ҳабиб ус-сияр. – Т., 2011; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 2002; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

Q.E.

MAJDIDDIN BAG‘DODIY (taxallusi; to‘liq ismi: Abusaid Majdiddin Sharaf ibn Muayyad ibn Abulfath Bag‘dodiy, 1150, Bag‘dod – 1217, Xiva) – tariqat shayxi, tasavvuf olimi, mutasavvif shoir. N.ning “N.M.”da ma’lumot berishicha: “Asli Bag‘doddindur. Xorazmshoh Bag‘dod xalifasidin tabiba tiladi. Aning atosin yubordi. Va ba’zi debdurlarki, Bag‘dodedindurki, Xorazm kentlaridindur”. Najmiddin Kubroning iqtidorli shogirdi hamda ulug‘ avliyo va otashnafas shoir Farididdin Attorning ustozi bo‘lgan. Mashhur tabib sifatida hukmdorlar saroyida katta mavqega ega M.ning ko‘ngliga kutilmaganda ilohiy ishq uchquni tushib, Najmiddin Kubroga muridlikka tushdi va uning qo‘l ostida 15 yil riyozat chekib, “suluklar qildi, oliy marotib hosil qilib, buyuk maqomlarg‘a qadam qo‘ydi”.

Najmiddin Kubro va M.B. o‘rtasida ular tanlagan yo‘llarning (Najmiddin sukr − hushyorlik, Majdiddin sahv − mastlik tarafdori edi) tafovuti jihatidan qaysidir darajada ichki ixtilof bo‘lgan va bu ziddiyat bir voqea munosabati b-n yuzaga chiqadi. Gap shundaki, bir kuni M.B. darveshlar b-n birga o‘tirganda, unda bexudlik holati yuz berib, hamsuhbatlariga qarata shunday deydi: “Biz o‘rdak tuxumlari edik. Shayximiz Najmiddin tovuq edi. U bizni ochdi. Biz daryoga qarab yo‘l oldik, u esa qirg‘oqda qoldi”. Bu gap Kubroning qulog‘iga yetganida, u qattiq ranjidi va suyukli muridini: “Iloyo, o‘sha suvda g‘arq bo‘lib o‘l!” − deb qarg‘aydi. Darhaqiqat, ko‘p o‘tmay, Muhammad Xorazmshoh M.B. Amudaryoga cho‘ktirib o‘ldiradi.

XIII asr tasavvufi taraqqiyotiga katta ta’sir ko‘rsatgan bu buyuk shayx va shoir Markaziy Osiyo va Shimoliy Fors o‘lkasida shuhrat qozongan. “Safar risolasi”, “Tuhmat ul-barara” (“Yaxshilar sovg‘asi”) kabi tasavvufga oid asarlari va so‘fiyona ruboiylari mavjud.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Абдураҳмон Жомий. Нафаҳот ул-унс // Осор. Дар 8-жилд. Жилд 8. – Душанбе, 1990; Ҳо-*

мидий Ҳ. Тасаввуф алломалари. – Т., 2004; Очилов Э. Муборак сарчашмалар. – Т., 1997; Маждиддин Бағдодий. Рубоийлар // Ишқ дафтари; Маждиддин Бағдодий. Рубоийлар // Муҳаббат тароналари; Маждиддин Бағдодий. Рубоийлар // Донишмандлар туҳфаси. – Т., 2009.

E.O.

MAJMA' UL-BAHRAYN – ikki dengizning qo‘shilgan joyi. Xizr (a.s.) va Muso (a.s.) uchrashib, muloqot qilgan joy ham M. deyiladi. Rum va Fors daryolar qo‘shilgan joyni ham M. deb ataganlar. N. bundan o‘z badiiy maqsadi yo‘lida foydalanib, “Agar mening ko‘z yoshim daryoga aylanib, Jayhun (Amudaryo) sari borguday bo‘lsa, u bilan birlashib, ikki daryo qo‘shilganday bo‘ladi”, – deb mubolag‘a qiladi:

Ey Navoiy, majma' ul-bahrayn bo‘lg‘ay oshkor
Mayl qilsa sayli ashkim nogahon Jayhun sari.

Ad.: *Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик, 3-жилд. – Т., 2011; Ғиёс ул-луғот. Жилд 2. – Душанбе, 1988; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. – Т., 1984.*

M.A.

MAJNUN I (XV asr) – shoir, xattot. Hirot madaniy muhitining namoyandasi. Otasi Kamoliddin Mahmud Rafiqiy. M. Mohir xattot bo‘lgan. M. ham chap qo‘lda ham go‘zal nasta'liq xatini yoza olgani va “bozguna” (teskari, ters) chapdan o‘ngga qarab xat bita olgani u-n “chapnavis” laqabini olgan. M. xat usuli b-n so‘z tarkibidan turli hayvon yoki inson shaklida paydo qilar, xatning bu xil ixtirosi M.ga qadar ma'lum bo‘lmagan. Mutaxassislar bu xatni “tav'amon” (egizak, dugona ma'nosida, ikki sahifada harflar joyi, shaklini oq qoldirib, qolgan joyni qoraga bo‘yalsa, so‘ngra har ikki sahifani birlashtirib yorug‘ga tutilsa oq harflar ko‘rinadi. “Zanjirband sher” nomli N.ga nisbat berilgan miniatyura chetlarida shu tarzda yozilgan “Amali Amir” va “Alisher” yozuvlari bor). M.dan “Odobi xat”, “Savod ul-xat”, “Rasm ul-at” (she'riy) va “Murakkabsoziy” nomli husnixat masalalariga bag‘ishlangan risolalari yetib kelgan. Ular Leningrad ShI.ning qo‘lyozmalar fondida, Tehron universiteti kutubxonasida saqlanadi. M.ga “Layli va Majnun” va “Noz-u Niyoz” nomli asarlar ham nisbat beriladi, lekin ular hanuzgacha topilmagan.

M.ning chapnavislik b-n yozilgan bir necha qit'alari Istanbulda va Eron olimi Mahdi Bayoniy majmuasida mavjud, bir necha xat namunalari esa albomlarda uchraydi.

N. M. haqida “M.N.”da ma'lumot beradi. Mashhadlik bu ijodkorning tab'i sho‘x ekanligi, “bozguna” xatini nihoyatda ravon va sof qilib bitganini N. yuqori ta'riflaydi va uning bu sohadagi muvaffaqiyatlari taajjub qilarlidir, “ko‘rmagan kishi ishona olmas”, deb yozadi. N. M.ning quyidagi matla'sini keltiradi:

Ba va'z meravam-u zor-zor megiryam,
Bad-in bahona zi hijroni yor megiryam.

Tarj.: Va'z eshitishga borib zor-zor yig‘layman. Bu bahona b-n yor hajrida yig‘layman.

Ad.: *Миклухо-Майлай Н.Д. Некоторые редкие и уникальные персидские и таджикские рукописи в собрании. – М., 1960; Муродов А. Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан. – М., 1971.*

E.O.

MAJNUN II – N. “L.M.” dostonining bosh qahramoni. Muallifning o‘z dostonini va undagi timsollarni tushunish u-n taqdim etgan ochqich sifatidagi 36-bobidan ma'lum bo‘lishicha, asar majoziy va haqiqiy ishq tasvirini o‘z ichiga olgan 2 qatlamdan iborat. Bu 2 qatlam o‘zaro chambarchas bog‘lanib ketganki, ularni bir-biridan ajratish dostonni shoir ko‘zda tutgan asosiy mag‘iz-mohiyatdan mahrum qilib, uni baxtsiz sevgi talqiniga bag‘ishlangan odatda-

gi ishqiy asarlarga o‘xshatib qo‘yadi. Holbuki, “L.M.” nihoyasida N.ning o‘zi dostonini o‘qigan o‘quvchining uning asl muddaosini anglashini istaydi:

Har neki o‘qur, taammul etsa,
Degan g‘arazim taxayyul etsa.

Dostonning majoziy qatlamiga ko‘ra, M. Arabdagi Bani Omir qabilasining boshlig‘i bo‘lgan badavlat kishining xonadonida tug‘iladi. Unga Qays deb shuhratli bobosining otini qo‘yadilar. Favqulodda layoqati b-n ajralib turgan bolani 4–5 yoshida o‘sha davrning donishmandi tahsil berayotgan Hay qabilasidagi maktabga beradilar. Uni qizining ta’lim olishi u-n Laylining otasi tashkil etgan edi. M. tashnalik b-n bilim olishga tushib, barcha talabalardan o‘zib ketadi. Besh-o‘n saboqni bir kunda olardi. Natijada:

Oz vaqtda ayladi zamona
Oni bori ilm aro yagona.

M. o‘qishni boshlagan paytda Layli kasalligi tufayli darsga qatnamayotgan edi. Nihoyat, u tuzalib, maktabga keladi. Bu xursandchilik evaziga muallim o‘quvchilarni darsdan ozod qiladi. O‘z navbatida, Layli barcha hamsaboqlarini bog‘ sayliga taklif etadi. M. esa qizni bir ko‘rishdayoq hushidan judo bo‘ladi (“Avval qadah oldi hushini pok”). Unga muvofiq ravishda Laylining ham ko‘ngliga bir o‘t tushadi (“O‘z ko‘nglini topti noshikebo”). Sayr chog‘ida ikki yosh bir gul chamani ichida uchrashadilar va ikkisi ham hushidan ketadi. Shu b-n ular o‘rtasidagi ishq dostoni boshladi. Qorong‘i tushishi b-n M. Layli qabilasini ko‘zlab yo‘lga tushaveradi. Tez orada bu ishq el orasida gap-so‘zga aylanadi. Xalq uni dev uribdi deydi, aslida uni pari urgan edi:

Xalq ollida dev urub anga yo‘l,
Bilmay munikim, pari emish ul.

Shu tariqa, M. Layli g‘amida ota-onasini ham, o‘z ahvolini ham, dunyoni ham unutadi. Bolalar uni Majnun deb ortidan tosh otadilar. Bu gap-so‘zlar Laylining otasi qulog‘iga ham yetib: “E, afsus, shunday muloyim-u xushfe’l, olim-u donishmand yigitga ko‘z tegibdi-da”, – deb uning ahvoliga achinibgina qolmay, ota-onasiga ham rahmi keladi. Lekin devonaligi va oshiqligi b-n elga masxara bo‘lgan M.ning o‘z qiziga oshiqligini bilgach, ori qo‘zg‘alib, tutaqib ketadi. Otasiga xabar yuborib, o‘g‘lini yig‘ishtirib olishini so‘raydi. Lekin M.ga tabibning muolajasi kor qilmaydi. Zanjirga solsalar, bandni uzib, dashtga chiqib ketadi. Ka’baga olib borsalar, o‘ziga yuzlangan bu chidab bo‘lmas ishq savdosidan najot tilash o‘rniga Xudodan ko‘nglidagi ishq o‘tini yanada balandroq qilishini so‘raydi. Buni ko‘rgan ota-ona-yu qavm-u qarindoshlar undan qo‘llarini yuvib qo‘ltiqlariga uradilar. M. yana dashtga chiqib ketib, tilsiz jonivorlar b-n do‘st tutinadi.

Bu orada Arabning badavlat va nufuzli yigitlaridan bo‘lgan Ibn Salom bog‘ sayridan qaytayotgan Laylini ko‘rib sevib qoladi. Uning sovchilarini Laylining otasi xush-xursand kutib oladi. Faqat qizning o‘ziga kelib olishi va biroz ulg‘ayishi u-n muhlat so‘raydi.

Sahroda ov qilib yurgan sahro lochini Navfal hayvonlar qurshovidagi M.ni ko‘rib, u b-n tanishadi. “Ishq ko‘rgan” kishi bo‘lganligidan M.ga yordam bermoqchi bo‘ladi. Avval Laylining otasiga maktub yozib, qizini M.ga berishini so‘raydi. Bu urinishi natija bermagach, unga qarshi urush ochadi. Bundan ham bir ish chiqmagach, o‘z qizini berib kuyov qilmoqchi bo‘ladi. Lekin to‘y kechasi Navfal qizining sevgan yigiti borligi ma’lum bo‘ladi. M. ikki yoshga baxt tilab, yana biyobonga chiqib ketadi. Ittifoqo, o‘sha kecha Laylining ham to‘yi bo‘lib, ko‘p ichganidan Ibn Salomning quyanchiq kasali tutib qoladi. Hamma bemor b-n ovora bo‘lib qolganidan foydalangan Layli sahroga chiqib ketadi. O‘zi sari kelayotgan M. b-n uchrashadi. Shundan keyin M. Layli qabilasi ko‘rinib turadigan Najd tog‘ini makon tutadi. Ota-onasi uning hajrida hasrat b-n o‘tib

ketishgach, qabristonni manzil qiladi. Sevgilisining yaqinlaridan judo bo‘lganini o‘ziga og‘ir olgan Layli betob bo‘lib qoladi va M. b-n o‘zini birga ko‘mishlarini vasiyat qilib, dunyodan ko‘z yumadi. Mahbubasining jon uzayotganini ichki tuyg‘u b-n sezgan M. Layli qabilasiga chopadi. U eshikdan kirganini his qilgan Layli ko‘zini bir ochadi-yu, so‘ng ularni manguga yumadi. Qiz b-n birga M. ham jon beradi. Sevishganlarni bir kafanga o‘rab, bir qabrga dafn etishadi. Jisman bir-biriga yetolmaganlarning ruhlari o‘zaro qo‘shilib ketadi.

Tirikligida bir-biriga yetolmagan oshiq-ma’shuqlar to‘g‘risidagi mazkur qayg‘uli qissa Allohning vasliga bu dunyoda yetib bo‘lmasligi xususidagi so‘fiyona talqinga juda mos kelar edi. Shuning u-n ham Sharq shoirlari undan ilohiy ishqni tasvirlash u-n bir vosita sifatida foydalandilar.

Yozmoqta bu ishqi jovidona
Maqsudum emas edi fasona.

Mazmunig‘a bo‘ldi ruh mayli,
Afsona edi aning tufayli, –

deb yozadi N. ham.

Dostonning ishq ta’rifiga bag‘ishlangan 36-bobida shoir o‘z asarini tushunish u-n o‘quvchiga ochqich taqdim etadi – majoziy ishq tasviri orqali haqiqiy ishqni tarannum etganini ta’kidlaydi. N. talqiniga ko‘ra ishq 2 bosqichdan iborat – majoziy ishq va haqiqiy ishq. M. biridan o‘tib, ikkinchisiga yetadi.

Majnung‘a biri bo‘lub musallam,
Bahra topti ikinchidin ham.

Ishqning insonni qusurlardan xalos etuvchi, uni kamolotga yetkazuvchi xususiyatga egaligini ko‘rsatishga bag‘ishlangan dostonning majoziy va haqiqiy ishq sharhiga bag‘ishlangan ushbu bobi nafaqat mazkur dostonni, balki umuman tasavvuf adabiyotini anglash u-n muhim ahamiyatga ega.

N. nuqtayi nazariga ko‘ra, majoziy ishq – insonning poklanish va kamolot kasb etish jarayoni bo‘lib, buni u kimyolanish deb ataydi. Ana shu kimyolanish jarayonida uning xokiy vujudi o‘zidagi qusurlardan qutulib va fazilatlar kasb etib, kamolotga erishadi – oltinga aylanadi. Kamolot bosqichi – bu haqiqiy ishq. Buni shoir yana boshqa nom b-n oyinayi jahonnamolik deb ataydi. Ya’ni kimyolanish bosqichidan ishq endi oyinayi jahonnamolik kasb etadi. Shu tariqa, ishqning avval kimyolik, keyin oyinayi jahonnamolik xususiyatini bayon etar ekan, shunday deydi:

Garchi iki nav’ o‘tti rozi,
Avvalgini anglagil majozi(y).

Bu narsa “F.Sh.”da ham bor. Farhod va M. ning Shirin va Layliga yetish yo‘lida chekkan ranj-u mashaqqatlari, alam-iztiroblarini u – majoziy ishq, ikki oshiqning o‘z ma’shuqalariga yetib, singib-birlashib ketganini – haqiqiy ishq deb ataydi.

Demak, kimyolanish – tariqat, oyinayi jahonnamolik esa haqiqat bosqichiga to‘g‘ri keladi.

Oyinayi jahonnamo aslida oshiq solikning qalbi. Dunyo, nafs, vujud tashvishlaridan qutulgan, ularning borligini unutib, butun fikru zikrini yagona Allohga qaratgan insonning qalbi oyinaday pok bo‘ladiki, jumla olam, kurrai zaminda yuz berayotgan voqealar unda aks etadi. Mazkur oyinada Alloh nuri, ilohiy fayz ham jilvalanib turadi. Bu haqda shoir shunday yozadi:

Xurshidi jahonkushoy sensen,
Mir’oti jahonnamoy sensen.

Kim qildi sanga nazarni ravshan,
Ko‘rdi yer-u ko‘kdagin muayyan.

Chun boqqali ixtiyor topti,
Har sorikim boqti – yor topti.

Laylining ishqida odamlardan, dunyodan uzilib, biyobonga chiqib ketgan, nafsini ham, jismini ham unutgan, qayoqqa borsa – faqat ma’shuqasini ko‘radigan M.ning qalbi dunyoviy g‘ubor-

lardan tozalanib, ilohiy shu'ladan ravshanlashgan – oyinayi jahonnamoga aylangan. Navfal qo'shinidan yengilayotgan Laylining otasi o'z qizini o'ldirishga qasd qilganini u aynan ko'ngil ko'zgusida ko'radi va Navfaldan urushni to'xtatishni so'raydi. Ota-onasining farzandi g'am-u hasratida dunyodan o'tgani-yu, Laylining jon taslim qilayotgani ham uning ko'ngil ko'zgusida namoyon bo'ladi.

Doston voqealariga N. qo'limizga tutqazgan ko'zgu orqali nazar tashlasak, uning yashirin – ramziy mohiyati ochila boradi: ikki oshiq-ma'shuqning bir-biriga yetisholmasligi dunyoviy talqinga ko'ra qayg'uli hisoblansa, so'fiyona falsafaga binoan insonning bu dunyodagi hayotining o'zi g'am-u hasrat. Chunki u ibtidoda bir butun bo'lgani Parvardigoridan ayru tushgan va endi bir umr yana visolga yetish, unga qo'shilish u-n intiladi. Lekin mavjud dunyo, nafs va jism bu yo'lda to'siqdir. Shuning u-n Haq b-n vahdatni istagan oshiq o'zi b-n Rabbi orasidagi mazkur g'ovlarni o'rtadan ko'tarishi kerak. Tasavvuf adabiyoti xuddi shu – insonning nafs va dunyo shug'lidan xalos bo'lish u-n kurash jarayonini aks ettiradi. So'z san'ati talablariga muvofiq, bu narsa ramz-u timsollar vositasida ifodalanadi.

Albatta, har qanday badiiy asarda bir necha ma'no qatlami bo'ladi. Lekin ilohiy ishqqa urg'u berilishi "L.M."da so'fiyona mazmun birlamchiligini ko'rsatadi. Dostonning muqaddimasida Alloh bu dunyoda Layli ko'rinishida jilva qiladi va barchani M. kabi o'ziga maftun etadi, deyilishining o'ziyoq uning oddiy sevgi tasviriga bag'ishlanmaganligidan dalolat beradi:

Ey har sorikim qilib tajalli.
Ul mazhar o'lub jahonda Layli.

Ey oniki, Layli atab otin,
Majnun qilmoq qilib sifotin.

Doston boshdan-oyoq ramz-u timsollarga ko'milgan bo'lib, uning asosida Yaratuvchi va banda munosabatlari yotadi. Asarda ilohiy muhabbat tasviri birlamchiligi, maqsadi – so'fiyona ishqni kuylash ekanligini shoir ibtidodan intihoga qadar o'rni-o'rni b-n ta'kidlab boradi. Ma'lumki, dunyoviy muhabbat balog'at yoshidan boshlanadi. Qaysning esa tug'ilishidanoq qalbi ishqqa makon edi. Uning vujudi loyi ishq o'tida pishgan:

G'am tufrog'i suyidin sirishti,
Ishq o'ti-yu yeli sarnavishti.

U "ishq ahliga qiblayi murod" bo'lib dunyoga keladi. Chunki uning "Ishq farzandi" ekanligi chaqaloqligidayoq ayon edi. Qays hali beshikda ekan, o't ko'rsa, uni ishq o'ti tasavvur qiladi: go'dakni g'am-u dard parvarish etadi; u beshikda fig'on cheksa, bu darddan nishona ko'rinar edi:

O't ko'rsaki, mayl etib nihoni,
Ishq o'ti tasavvur aylab oni.

Bo'lmay g'ofil dame g'am-u dard,
Ulg'aytibon oni dardparvard.

Mahd ichraki, tortibon fig'onlar,
Afg'onida darddin nishonlar.

O't va ishq aro o'xshashlik shundaki, o't ho'l-u quruqni yondirib, kul qilgani kabi ishq ham insonning butun jism-u jonini o'rtab, aqlini lol, qaddini dol, rangini somon aylaydi. Shuning u-n ham dostonda o't so'zi va uning otash, olov, barq, lam'a, sharar kabi ma'nodoshlari tez-tez tilga olinadi. Bu b-n shoir go'yoki buyuk bir ishq alangasidan xabar bermoqchi bo'ladi.

"M.Q." asarida N. ishqni 3 guruhga bo'lgan edi: nihoyasi shar'iy nikoh bo'lgan avom sevgisi, "alohida fazilat egalariga xos" pok ishq va Haqqa bag'ishlangan siddiqlar muhabbati. Shoirning o'zi pok ishqqa mansub bo'lib, shu orqali ilohiy muhabbatdan umidvorlik qilar edi. Shuning u-n u "F.Sh." dostonida bo'lgani kabi "L.M."da ham xuddi shu – pok ishqning yuksalib, haqiqiy ishq-

qa aylanish jarayonini badiiy timsollar vositasida ko‘rsatib beradi.

Ularning ishqi ham o‘zlariday pok edi. Dostonda tasvirlangan to‘siqlar, qarama-qarshiliklar bu – nafs harxashalari, dunyoning jabr-u sitamlari, ilohiy ishqdan bexabar johil olomonning ta’-na-malomatlari. Layli va M. u-n maqsad emas, balki ilohiy ishq kamolotini kasb etish yo‘lida bir vosita edi. Tasavvufda bu mazhar deb yuritiladi. Mazhar – ilohiy jamol yo kamolni o‘zida aks ettirgan kishi. Haq oshiqlari ko‘pincha mazharni sevish orqali haqiqiy ishqqa yetadilar. Layli ham M. u-n ana shunday mazhar edi. Layli misolida M.ning ishqi konkretlashadi.

Qaysning maktabda chanqoqlik b-n saboq o‘zlashtirishi, Laylining darsga qatnamasligi – bu uning shariat, dunyoviy ilmlar b-n mashg‘ullik davri. Laylining tashrifi – Qays qalbida ilohiy nurning porlashi. Bu nur – ilohiy mayning ilk qadahiyoq Qaysning aql-u hushini oladi (ilk qadah bu – birinchi jazba, ya’ni Alloh tomonga tortilish). Ayni shu ilohiy nur tufayli uning ruhiyati gulshanga aylandi va bunda ilohiy mahbuba yana bir bor jamol ko‘rsatdi (ikkinchi jazba). Ilk qadahdan Qays sarxush bo‘lgan edi, endi butkul mast bo‘ldi – hushidan ketdi. Bu hol bir necha marta takrorlanadi (hushni yo‘qotish – ma’shuq mushohadasi avji qiyomida ilohiy nurning ko‘ngilda jilva qilib, oshiqning hayratga tushishi). Shu tariqa, ilohiy maydan sipqorgan sari oshiqning xumori ortib boradi. Tashnaligi chegara bilmaydi. Oxir-oqibat u bu mayni oxirigacha simiradi va jism-u jonini butkul unutib, makbubi azalga qo‘shilib-qorishib ketadi.

Ma’lumki, favqulodda iste’dodi va qobiliyati b-n ajralib turadigan xos kishilar bo‘ladi. Bu toifaga xuddi shunday ustunlikni bergan Xudovandi Karim ularning keyingi hayoti va faoliyatiga ham o‘zi rahnamolik qiladi. Ular maxsus tayyorgarlikka, ustoz-u murabbiylarga ko‘pda ehtiyoj sezavermaydilar. Allohning marhamati b-n har qanday ilm va hunarni juda tez va oson o‘zlashtiradilar. Oddiy kishilardan ancha yuqori imkoniyatlarga ega bo‘ladilar. Ana shu afzalliklari tufayli avom xalqdan ajralib turadilar. Ularning bunday g‘aroyib hollari, ajabtovur so‘zlarini oddiy kishilar qabul qila olmaydilar va ko‘pincha, ularga dushmanlik b-n munosabatda bo‘ladilar. Payg‘ambar-u valiylardan tortib mashhur shayx-u so‘fiylar, olim-u adiblar hayoti buning yaqqol isbotidir.

M. ham ana shunday xos kishilar jumlasiga kiradi. U hali bola ekan, tilidan ilohiy kalomlar yog‘iladi:

Bo‘lg‘och tili lafzdin xabarliq,
Har lafzki, deb bori asarliq.

Chun el bila boshladi takallum,
El hushin etib takallumi gum.

Bolaligidan alohida iste’dod va qobiliyati b-n ajralib turganligi u-n ham:

Oz vaqtda ayladi zamona
Oni bori ilm bila yagona.

Farhodda valiylik bor edi. M.da malaklik mavjud (dostonning bir necha o‘rnida u malakka o‘xshatiladi). Ayni paytda uning valiyga o‘xshash jihatlari ham yo‘q emas:

Odobi hidoyat ahli yanglig‘,
Oyini valoyat ahli yanglig‘.

Shu tariqa, Layli muhabbatiga giriftor bo‘lishdan ilgari Qays xalq ichida go‘zal axloqi va nodir iste’dodi b-n tanilgan edi. Bu o‘smirni barcha hurmat qilib, kelajagiga umid bilan qarardi. Hatto Laylining otasi ham Qays haqida yuqori fikrda edi. Shunday zukko, Xudo yarlaqagan yigitning bir qiz ishqida es-hushidan judo bo‘lganini eshitib, afsus chekadi:

Ta’rifida ko‘p o‘tar edi so‘z,
Go‘yoki anga tegurdilar ko‘z.

Bas, qobil edi-yu dilpisand ul,
Ozodavash-u niyozmand ul.

Aqli komil-u kalomi ma'qul,
Bor erdi manga ham asru maqbul.

Hatto Qaysning ota-onasiga achinadi:

Ne erkin aning atosi holi
Bechora anosining maloli?

Navfal ham Laylining otasiga yozgan maktubida M.ning ta'rifini qiladi:

Qays ulki, Arabda bebadaldur,
Har fazlda el aro masaldur...

Xayling aro kasbi ilm qilmish,
Olamda neki ilm bori bilmish.

Sen dog'i ishin bilur emishsen,
Doim ta'rifin qilur emishsen.

Ma'lum bo'ladiki, Laylining otasi M.ga qizini uning o'zidan past tabaqadan ekanligi u-n emas, balki aynan telbaligi u-n bermagan. Chunki Qaysning otasi ham Laylining otasi kabi bir qabilaning boshlig'i bo'lib, boylikda ham, obro'-e'tiborda ham undan kam emas edi.

Layli otasining uni kuyov qilishdan or etishi – M.ning xalq tomonidan qabul qilinmaganligiga ishora. Mansur Hallojni dorga osgan, Nasimiyning terisini shilgan, Boyazid Bistomiyni 7 marta tug'ilgan shahridan badarg'a qilgan johil olomon M.ni ham rad etdi.

M. – Xudo yo'lida xilvatga chekingan so'fiy timsoli. Ishq yo'lida tarkidunyo qilgan solik. Undagi Haqqa intilish jarayonlarining barchasi ko'ngilda kechadi. M. – ko'ngil odami. M. yo'li – ko'ngil orqali Haqni tanish va unga yetish yo'li. Shoirning o'zi naqshbandiya tariqatida bo'lsa-da, Ibrohim Adham, Mansur Halloj, Boyazid Bistomiy, Robiya Adaviya kabi uzlatpesha, tarkidunyochi so'fiylar yo'lini ham inkor etmaydi, aksincha, ularning faoliyatlari va erishgan maqomlariga ehtirom b-n qarab, bir qancha asarlarida bu buyuk insonlar nomini tilga oladi, ular b-n bog'liq rivoyatlar keltiradi.

Dunyoviy muhabbat kabi ilohiy ishq ham ikki tomonlama bo'ladi. Alloh o'z sevgisini g'aybiy ishorat orqali bildiradi. Olam ham, Odam ham Alloh muhabbatining mevasi. U sevmasa yaratmas va o'ziga chorlamas edi. O'z navbatida, inson ham sevmasa, intilmasa, Alloh muhabbatiga erisholmaydi. Bu sevgi 2 ko'rinishda namoyon bo'ladi: 1) Alloh bandasini sevib qolib, uning qalbiga ilohiy ishq o'tini soladi; 2) banda o'z Parvardigoriga muhabbat qo'yib, uning ishqida hamma narsadan voz kechadi va bu ranj-u mashaqqatlari evaziga Alloh ham lutf-u marhamat ko'rsatib, uni o'z yaqinlaridan qiladi. M-n., "F.Sh."da avval Farhod Shirinni ko'rib oshiq bo'ladi va riyozatlar chekib unga intiladi. Uning sidq-u sadoqatini ko'rgan Shirin sevgilisining pok muhabbatiga muhabbat b-n javob beradi. M.ga esa, aksincha, dastlab Allohning o'zi nazar tashladi – jamolini ko'rsatdi va unga mast-u shaydo bo'lgan M. bori-yo'g'ini tark etib, bu ilohiy mahbubaga yetish u-n intildi. Lekin ular o'rtasida muqarrar to'siqlar bor edi. Bu – dunyo, odamlar va jism. Qachonki, ishq yo'lidagi ranj-u riyozatlar o'tida ulardan asar ham qolmadi – Farhod ham, M. ham o'z Parvardigori b-n qo'shilib, bir bo'lib ketdi.

Tasavvuf ta'limotiga ko'ra, haqiqatga 2 yo'l – tariqat yoki ishq orqali yetiladi. Ishq vositasida Haqqa yetish – xoslar yo'li. Bu toifa Allohning inoyati b-n birato'la hol maqomini egallab, maqomot bosqichini o'tashga ko'pincha ehtiyoj sezmaydilar. Ayni jihatdan ularning piri bevosita Haqning o'zi hisoblanadi. Dostonda M.ning ham biror-bir murshidga murid tushgani haqida ishoralar yo'q. Holbuki, Farhod bir necha pirning (Jomosp, Suhaylo, Xizr, Suqrot) ta'limini olgan edi. Ma'lum bo'ladiki, N. Farhod siymosida tariqat (naqshbandiya) yo'li b-n, M. misolida ishq (xilvat) vositasida Haqqa yetgan oshiq-solik timsolini yaratgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Комилов Н., Эралиев Б. Ишқ оташининг самандари //*

Комилов Н. Тасаввуф. – Т., 1996; Ҳаққул И. Жунун маърифати // Тасаввуф ва шеърият. – Т., 1991; Очилов Э. Мажнун – Ҳақ ошиғи // Навоийга армуғон, 4-китоб. – Т., 2004.

A.A., E.O.

MAJNUN HIKOYATI – N.ning "S.I." asarida qish ta'rifiga bag'ishlangan hikoyasiga xulosa sifatida keltirilgan hikoyat. Unda tasvirlanishicha, Layli ishqida biyobonni makon tutgan M. qish-u yoz oyoqyalang-boshyalang sahroda charx urib, na yozning jaziramasida soya qidirar edi-yu, na qishning izg'irinida boshpana. Xayolida faqat L. bo'lib, qayoqdan mahbubasi xabarini eshitsa, sabo gul sari esgandek o'sha yoqqa chopar edi.

Bori mayli ul yonki Layli edi,
Qayon Layli, ul sori mayli edi.

Bir qish nihoyatda sovuq kelib, sayri davomida u L. manziliga yaqinlashib qoladi. Sabo bulbulga gulzor isini olib kelganidek, M.ga ham yor bo'yini yetkazadi. O'shanda qorong'i va qahraton kecha bo'lib, ko'zi yumuq holda qadam bosib, L. eshigiga kelib boshini uradi. Eshik ochilishi b-n unga kiradi-yu, qarshisida zulmat tunda Suhayl yulduzidek porlab turgan L.ga duch keladi. Shavq-u hayrat joniga tob solib, har ob jismi ado bo'ladi – L. oldida tuproqqa bosh qo'yib, dunyodan ko'z yumadi. Odamlar bilib qolmasinlar deb, L. uni hujraga yashiradi.

Ishq ichra ana shunday ajoyib-g'aroyib hodisalar ham uchrab turadi, deb hikoyasini yakunlaydi shoir:

Erur ishq aro bo'yla a'jubalar
Ki, beishq bilmas bu mansubalar.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

E.O.

MAJOZ (ar.) – yo'l, o'tish joyi; haqiqatning ziddi – so'z yoki iborani o'z ma'nosidan boshqa, ko'chma ma'noda ishlatishga asoslangan badiiy usul. Bunda asl va ko'chma ma'no o'rtasida aloqadorlik va o'xshashlik bo'ladi. M. badiiylikning muhim vositalaridan biri bo'lib, nafaqat bayonning qisqa va lo'nda bo'lishi, balki turli narsa-hodisalar, holat-kechinmalarni to'la va ta'sirli, go'zal va jozibador tasvirlashga ham katta imkoniyat yaratadi. Shuning u-n shoir va yozuvchilar o'z asarlarida majoziy ma'nodagi so'z va iboralar, obrazlardan mahorat b-n foydalanibgina qolmay, majoziy usulda asarlar ham yaratganlar. Masal va ertaklarning ayrim turi M. asosida yaratilgan.

N. ijodida ham M. keng o'rin tutadi. U she'rlarida majoziy so'z va obrazlardan keng foydalanibgina qolmay, "X." dostonlarida qator majoziy hikoyatlar keltiradi, "L.T." dostonini esa "majoz tariqi bila" yaratadi. Bu haqda uning o'zi shunday yozadi:

O'yla qushlar nutqini izhor etay,
Bulbul-u to'ti kibi guftor etay.
Kim xaloyiq chun tarannum aylagay,
Qush tili birla takallum aylagay.
Qush tilin sharh etgali yo'ndum qalam.

"M.L."da "qush tili" ishorati bila haqiqat asrorin majoz suratida ko'rguzupmen", – deb yozadi bu haqda. Chindan ham, asar boshdan-oyoq majoziy mazmunda bo'lib, Simurg' – Xudo, Hudhud – murshid, qushlar – soliklar ramzi bo'lib keladi. Maqsad yo'lidagi har bir vodiy – tariqatning bir maqomi. Bugina emas. Har bir qush bir inson tabiatini tamsil etadi. Chunonchi, xo'roz – shahvat, humoy – gumrohlik, tazarv – kibr, qarchig'ay – jaholat, to'ti – taqlidchi, qumri – ojizlik misoli va hokazo. Quyidagi baytida arslon deganda ishq, tulki deganda aqlni ko'zda tutmoqda:

Ishq olamso'z keldi, qo'y fusuning, ey xirad,
Yetti chun yer-ko'kni yirtib arslon, ey tulki, qoch!

N. “M.Q.” asarida shoirlarni uch guruhga bo‘lib, bir jamoasi haqida: “haqiqat asrorig‘a majoz tariqin maxlut qilibdurlar va kalomlarin bu uslubda marbut etibdurlar”, deydi. Yana boshqa bir jamoa shoirlarning: “majoz tariqi adosi alar nazmig‘a g‘olib va alar bu shevaga ko‘prak rog‘ib” ekanliklariga diqqatni qaratadi. N. ustozi Jomiy haqida: “haqiqat va majoz tariyqida komil va ilmi ikalasi tariqida vofiy va shomil” ekanligini aytib o‘tadi.

N. “majoz” so‘zini ishqqa nisbatan ham qo‘llaydi. U insonga va yaratilgan narsalarga qaratilgan ishqni “majoziy”, Allohga qaratilgan muhabbatni esa, “haqiqiy” ishq deb ataydi “Al-majoz-u qantarat ul-haqiqat” – “majoz haqiqatning ko‘prigidir”, jumlasiga muvofiq majoziy yo‘lni bosib o‘tmasdan”haqiqiy” ishq yo‘lida maqsadga erisholmaslikni uqtirib o‘tadi:

Gar Navoiy yig‘lasa, ishqing majoziydur dema
Kim, nazar pok aylagach, ayni haqiqatdur majoz.

N. davrida ham majoziy bayon uslubini tanqid qilgan ayrim kishilar bo‘lgan. Lekin mashhur shoirlarda bo‘lgani kabi ulug‘ shoir ijodida ham qalb holatlarini obrazli va ta’sirli ifodalash, xususan, ishq b-n bog‘liq tuyg‘ularni rang-barang bayon etish u-n majoziy, metaforik uslub keng istifoda etilgan. Majoziy – o‘tkinchi, vaqtinchalik ma’nosida ham qo‘llanadi. Ulug‘ shoir “N.M.”da Shayx Xalil Ota saltanati inqirozga yuz tutganda: “...bu muddatdin so‘ngra, chun majoziy mamlakatig‘a zavol bo‘ldi”, deydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Зеҳний Т. Санъати сухан. – Душанбе, 1967; Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Т., 1983; Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2010; ЎзМЭ. 5-жилд – Т., 2003; Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. 2-жилд – Т., 1988; Муҳаммад ибн Абдураҳмон Қазвиний. Талхис ал-мифтоҳ. – Т., 2020.*

S.R.

“MAJOZDIN MANGA MAQSUD ERUR HAQIQIY ISHQ...”

Majozdin manga maqsud erur haqiqiy ishq,
Nedinki, ahli haqiqatqa bu tariqat erur.
Majozdin chu haqiqatqa yo‘l topar oshiq,
Qilur majozni naf’yi ulki behaqiqat erur.

Ma’lumki, Sharq she’riyatida ishqiy g‘oya va obrazlar ikki yo‘nalishda talqin etilgan. Birinchisi, majoziy ishq. Bunda odamning odamga, tashqi olamga muhabbati kuylangan. Ikkinchisi, oliy idealga – Haqqa bo‘lgan sevgini anglatuvchi ilohiy ishqdir. Bu ishq “ishqi irfoniy”, “ishqi ma’naviy” deb ham yuritilgan. Haqiqiy so‘fiy shoirlar ilohiy ishqni majoziy ishqqa daxldor hisoblamaganlar. Ularcha, shahvoniy hirslar aralashgan ishq – tuban ishq. Ilohiy ishqqina odam qalbining hayotbaxsh nuri va pokiza ruhidir. Bu nur esa Tangri jamolida zuhurlanadi. Shuning u-n tun-u kun husn-latofatda tengi topilmas Ma’shuqa visoli dardida yonmoq kerak. Qit’ada majoziy ishq b-n ilohiy ishqni bir-biriga zid qo‘yuvchilarga munosabat bildirilgan. Majozdan maqsad haqiqat. “Gar inson idrok eta olsa”, ayni haqiqatdur majoz. N.ning nuqtayi nazarlari ana shu. N.shunos Y.Is’hoqov qayd qilganidek, Mir Alisher N. majoziy ishqni “ishqi haqiqiyning bir ko‘rinishi yoki haqiqiy ishq yo‘lidagi o‘ziga xos bosqich sifatida” baholaydilar. Lekin ular o‘rtasida qat’iy chegara ham qo‘ymaydilar. N. she’riyatidagi oshiq majozdin “haqiqatqa yo‘l” topgan, dunyo va odam qismatiga qarashlari nihoyatda keng lirik xarakterdir. U insonni sevib, Allohni unutmaydi. Xudo muhabbatida o‘rtanib, insonning ulug‘ va sharafli zot ekanligini yoddan chiqarmaydi.

Ad.: *Ҳаққул И. Касби камол ўзни танишдир. – Т., 2021.*

I.H.

“MAJOZIY MUHABBAT HAQIQATLARI” – adabiyotshunos Bobomurod Erali qalamiga mansub risola (T.: Akademnashr, 2015. – 80 b.) N. ijodi Islom falsafasi, tasavvuf nazariyasi va irfoniy ma’no nuqtayi nazaridan sharhlangan. Kitob 2 qismdan iborat bo‘lib, 1-bob “Navoiyga yuzlanib” deb nomlanadi. Mazkur bobdan ko‘tarilgan masalalar nihoyatda qiziqarli bo‘lib, besh faslda yoritilgan. “Shoirlar muallimi” faslida muallif “Alisher Navoiy ijodiga xolis baho berish va ko‘p yillar davomida ong-shuurimizda qotib qolgan biryoqlama qarashlardan voz kechishga intilayotgan ekanmiz, dastlab o‘z vaqtida shoir ijodiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan ilmiy-nazariy manbalar bo‘lganmi yoki yo‘q”, degan savolga aniqlik kiritishni maqsad qiladi va N.ning o‘z asarlariga tayanib, ushbu masalaga aniqlik kiritadi. Natijada, kitobxon shoir asarlarining yuksak badiiyati, jozibasi va latofatini yuksak darajaga olib chiqishga zamin yaratgan asoslardan – N. o‘qigan kitoblardan voqif bo‘ladi. M-n.:

Navoiy nazm aro tiyg‘i zabonin o‘yla surdikim,
Pichoq topmas uyatdin o‘zni o‘ldirmoqqa Sakkokiy”,-

baytidagi Sakkokiy N.ning yaqin zamondoshi, biz bilgan shoir emas, aksincha, “XII–XIII asrlarda yashagan “Miftoh ul-ulum” (“Ilmlar kaliti”) asarini bitgan buyuk xorazmlik olim Sirojiddin Abuyoqub Sakkokiy ekanligini dalillaydi. “G‘urbatda g‘arib” deb boshlanuvchi ruboiy bugungacha tushuntirilib kelinganidek shaxs erki, vatan muhabbati, vatanparvarlik va erksevarlik g‘oyalari ifodalanmagani, bu ma’nolari asarning zohiriy ma’nolari ekani, shoir ko‘zda tutgan asl maqsad “g‘urbat”, “g‘arib”, “gul”, “bulbul” istilohlari zamiriga yashiringanini isbotlashga urinadi va “Navoiy ruboiyda g‘urbat va g‘ariblik deganda bu dunyoning muvaqqat, g‘urbat joyda qolish, xursandlik unga tatimasligi va bu olam zavq-shavqidan ortiqcha xursand bo‘lolmasligini oddiy va sodda tarzda tushuntiradi”, deya xulosalaydi. “Komillik maqomi” faslida N.ning yana bir mashhur “Kamol et kasbkim...” qit’asining mohiyatidan bahs etilib, zohiran olganda, N. pand-nasihat sifatida bu dunyoda yashashdan maqsad komillika intilish va chin insoniy xulq-atvorni shakllantirishni vazifa qilib qo‘ygan emas, balki, undan teranroq ma’no – odamzod maqsadi va diqqat-e’tiborini ulug‘ maqom hamda darajani egallashga qaratib, bu olamdan o‘tmasdan oldin o‘z tabiati va axloqini turli illat-u yaramas fe’l-atvordan poklab olish kerakligini ogohlantirishni ko‘zda tutgan, deydi. “O‘yla, g‘arqi maydururlar...” va “Kishi aybing desa...” deb boshlangan qit’alarida ham dunyoga aldanib qolmaslik, qimmatli umrni boy bermaslik va uning har bir daqiqasini bu aldovdan xoli tarzda o‘tkazishga chaqirganini, shuningdek, inson zotiga bir umr o‘zini o‘zi isloh qilib yashash taqdir etilgan ekan, ayb va kamchiliklarini tuzatish va isloh qilish yo‘lini tutmasa, insoniy maqomdan pastga tushib, hayvondan farqi qolmasligini misralar qatiga singdirilgan ma’nolar asosida sharhlab beradi.

“Farhod va Shirin” sharhi” nomli 2-bob ham besh fasl doirasida yoritilgan. Olimning kuzatishicha, N. mazkur dostonga qo‘l urishdan oldin unga aloqadar manbalarni sinchiklab o‘rgangan, fikr va xayol elagidan o‘tkazgan, shu bilan birga, N. oldingi xamsanavislar e’tibordan soqit qilgan jihatlarga ahamiyat berib, Farhod, Shirin va Xusrav obrazlarini yanada takomilga yetkazdi, ularning ramziy va timsoliy ma’nolarini san’atkorona tarzda tasvirlab berishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. B.Erali “F.Sh.” dostonini taqdir va hayot kitobi bo‘lib, u odamzodning ibtido va intihosini o‘zida qamrab olgani, shu salmoq orqali ish tutganligi bilan katta ahamiyat kasb etadi, deydi. Umuman olganda, risolada N. asarlarida muayyan shaxs va zamondan shikoyatini o‘z ijodining asosiy g‘oyasiga aylantirganida, asarlari o‘sha davrdan uzoqlarga parvoz qilmagan, ko‘proq insoniyat taqdiri va qismatiga bitilgan og‘riq-azoblarni o‘ylab, iztirob chekkani bois shoir asarlaridagi g‘oya va qarashlar umumbashariy

ma’no-mazmun kasb etib, asrlar osha yashab kelayotgani atroflicha talqin etilgan.

Ad.: *Бобомурод Э. Мажозий муҳаббат ҳақиқатлари. – Т., 2015.*

M.M.

“MAJOLIS UN-NAFOIS” (“Nafis majlislar”) – N.ning 453 shoirlar haqida ma’lumot beruvchi nasriy tazkira asari. 896–1490/91-yy. da yozilgan, 903–1497-yy.da qayta to‘ldirilgan, ba’zi qismlari qayta tahrir qilingan.

“M.N” muqaddima, sakkiz “majlis” – qismdan iborat.

“M.N.” muqaddimasida uning yozilish sababi bayon etiladi: “...shikasta xotirg‘a va sinuq ko‘ngulga andoq keldikim, bir necha varaq bitilgay va bu asr shuuarosi bilan bu davr Zurafosi otin anda sabt etilgay, to bu niyozmandlar ham burung‘i shuaro akobiri zayrila mazkur bo‘lg‘aylar va bu payrovlar ham ul rahbarlar xaylig‘a qo‘shilg‘aylar... va har qaysining natoyiji tab’idin biror nima nishona yo‘sunluq yozilg‘ay”. Demak, N. asarni o‘z zamondoshlariga bag‘ishlaydi. Bu b-n esa N. tazkirachilikda yangi davr ochadi, o‘ziga xos an’anani boshlab beradi.

“M.N.”da N. o‘z davridagi adabiy hayotni kengroq qamrab olishga, uni hamma tarmoqlari haqida ma’lumot berishga intiladi. Asarda mehnat ahllariga mansub, o‘z hunari bilan mashg‘ul, ayni chog‘da she’riyatda shuhrat qozongan ko‘plab ijodkorlar haqida ma’lumot beriladi. Tazkira ma’lumotlari N. davrida adabiy hayot anchayin intensiv bo‘lgani, unda aholining turli tabaqalarining namoyandalari ishtirok etganlari, ular orasida o‘rtamiyona saviyada ijod qilgan shoirlar ham kam bo‘lmaganidan dalolat beradi. Yana she’rni yaxshi tushunadigan, uni ifodali o‘qiy oladigan, adabiy majlis, mushoira va munozaralarni kuzatib boruvchi adabiyotga g‘oyat qiziqqan, undagi yangiliklardan xabardor bo‘lib turuvchilar shahar aholisining ma’lum qismini tashkil etgan. “M.N.” bular haqida ham qiziqarli ma’lumot beradi.

N. “M.N.” materiallarini joylashtirar ekan, tazkiranavislik an’anasidagi xronologik, jug‘rofiy va sulolaviy prinsiplarga tayanadi. Chunonchi: I va II majlislarda zikr etilgan shoirlar tazkira yozilayotgan davrda vafot etib ketgan, III va IV majlislar N. zamondoshlariga, V majlis Xuroson, VI – Samarqand, Xorazm, Qarshi, Badaxshon, Sheroz va boshqa shaharlardan chiqqan shoirlar, VII temuriylar sulolasiga mansub shoirlar, VIII – Husayn Boyqaro she’riyatiga bag‘ishlangan.

N. “M.N.”da o‘z davri adabiyotining xususiyatlaridan kelib chiqib, muayyan yo‘nalish berishga intiladi, adabiyotning mohiyatini talqin etish, uni baholashda zamonning eng xalqparvar ijodkori sifatida fikr yuritadi.

“M.N.”ning I majlisida 46 shoir haqida ma’lumot beriladi.

II majlisda – 91 shoir, III – 174, IV – 72, V – 21, VI – 31, VII- 22, VIII-I, jami 459 shoir va ular ijodidan namuna sifatida 1570 misra she’r, jumladan N.ning muqaddima, har majlis yakuni so‘nggidagi va xotima qismi oxiridagi 13 ruboiysi keltiriladi. Har bir majlis so‘ngida alohida yakun beradi va ularni nomlashda N. takrorga yo‘l qo‘ymay “avval majlisning itmomi” desa keyingilarni “ixtitomi”, “xatmi”, “oxirgi”, “g‘oyati”, “nihoyati” va “tuganchisi” deb yozadi. VII majlisda esa xotima o‘rnida Husayn Boyqaro huzurida o‘tadigan adabiy anjumanlar haqida hikoya qiluvchi “xilvat” (q) deb atalgan suhbatlar beriladi.

N. shoirlar ijodiga va faoliyatiga baho berar ekan, ularning shaxsiyatiga ham to‘xtalib o‘tadi. Ijodkorning jamiyatga foydali fanlar b-n mashg‘ul madaniyat sohasidagi bilimi, tabiatidagi fazilatlari, xulq-atvoridagi nuqsonlarga alohida e’tibor qiladi. Namuna tariqasida keltirilgan she’rlari ham N. shu shoir ijodi uchun xarakterli bo‘lishiga ahamiyat beradi. Shu jihatlari tufayli “M.N.” yozilganidan ko‘p vaqt o‘tmay o‘sha davr olimlari diqqatini jalb etgan. Natijada, XVI asrning o‘zida “M.N.” fors tilida 5 marta tarjima qilindi. Bu hol asarga Movarounnahr, Eron va Turkiyada ne chog‘liq tavajjuh b-n qaralganidan dalolat beradi. Birinchi tarji-

ma 928–1521/22-yy.da Hirotda Taxmasp shohning saroy shoiri Faxriy bin Sulton Muhammad Amiriy (q.) tomonidan amalga oshirilgan va “Latoyifnoma” deb atalgan. Faxriy asarga 188 shoir haqida ma’lumot beruvchi IX majlisni ilova qilgan. IX majlis o‘z navbatida 9 qismga bo‘linib, ulardan birinchisi N.ning o‘ziga bag‘ishlanadi. Faxriy Husayn Boyqaroga bag‘ishlangan VIII majlisni qisqartib tashlab, undagi 164 bayt o‘rniga 1 bayt she’r qoldiradi.

Ikkinchi tarjima Istanbul 929–1522/23-yy. da tugallangan. Tarjimoni Muhammad Qazviniy (q) turk sultoni Salim I va uning vorisi Sulaymon I ning saroy tabibi bo‘lgan Qazviniy tarjima nomini shundayligicha qoldiradi, “Majlis”larni esa “behisht” deb ataydi. U ham VIII majlisni g‘oyat qisqartirib, VIII majlis oxiriga qo‘shib yuboradi va yangi “behisht” ochib, ikki ravzaga bo‘ladi va ularda Sulton Salim va Ya’qub mirzo davridagi adabiy muhitga mansub bo‘lgan 150 shoir haqida ma’lumot beradi. Diqqatga sazovor yeri shundaki, har ikki tarjimon ham N.ning u yoki bu shoirga bag‘ishlangan maqolasini tarjima qilar ekan, shu shoirlar haqida o‘zlari bilgan yoxud eshitgan ma’lumot, hikoyatlarni ilova qilib ketadilar. Bunday qo‘shimchalar tarjimonlar qimmatini oshiradi, ular yangidan qo‘shilgan boblar qatori o‘sha davr adabiy hayoti manzarasini yanada kengroq yoritishda muhim manba rolini o‘taydi.

“M.N.”dagi maqolalarning aksariyati g‘oyat ijobiy ruhda yozilgan. Jomiy, Lutfiy, Shayxim Suhayliy, Hofiz Sharbatiy, Sayid Hasan Ardasher, Pahlavon Muhammad, Ahmad Hojibek, Hoji Muhammad, Xoja Abdullo, Shoh G‘arib Mirzo, Muhammad Ali va boshqa bular ham ijodda, ham insoniylikda yetuk shaxslar. Ko‘pgina maqolalarda shoirning yo ijodidagi yoxud shaxsiyatidagi biron kamchilikni aytib o‘tadi. M-n, Binoiy haqida so‘zlar ekan, N. uning ko‘p qirrali iste’dodi – yaxshi xattotligi, musiqani bilganligi, uning nazariyasiga oid asarlar yozganini ta’rif qiladi va tabiatidagi kibr-havoga moyilligi uni ancha sarson-sargardon qilganini hamda elning ta’na-dashnomiga sabab bo‘lganligini qayd qilib o‘tadi.

Osafiy (q.) degan shoir ham juda qobiliyatli, mustahkam hofizalik bo‘lsa-da, chapanilik va bezorilik va o‘jarliklar bilan vaqtini behuda o‘tkazadi. Bularning ustiga u mutlaqo pand-u nasihatga quloq osmaydi.

Mirzobek (q.) ikki tillik shoir sifatida insoniylik va yaxshi axloqlikda yagona va g‘oyat zehnlik bo‘lgan, lekin u o‘z she’rlarini bir yerga jamlamas ekan. Bu shoir haqidagi boshqa manbalardagi ma’lumotlar N.ning u haqda katta taassuf b-n aytganlarini tasdiqlaydiki, ularga ko‘ra Mirzobek ichkilikka moyil bo‘lgan va shu tufayli erta vafot etgan. Asardagi Qambariy, Xayriy, Zayniy, Soqiy, Vali Qalandar, Kavsariy va boshqalarga bag‘ishlangan maqolalarda shunday afsus chekib yozilgan lavhalar bor.

N. ijodkor xalq b-n birga bo‘lishi, hayotdan uzilib qolmasligi kerak, degan muhim fikrni Yahyo Sebak, Ashrof kabi shoirlar timsolida ilgari suradi. Saltanat siyosatiga qarshi kuchlar tomonidagi ijodkorlar ham N. e’tiboridan chetda qolmaydi. Husayn Xorazmiy, Muqimiy, Abdullatif mirzo, Xoja Afzal, Olim va boshqa shoirlarga bag‘ishlangan maqolalardan davr hayotiga oid ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin. Birinchi majlisdagi Shohiy haqidagi maqola esa N. sarbadorlar shoiri xotirasiga chuqur hurmatidan dalolat beradi.

“M.N.”dagi ko‘p maqolalarda N. sharhi holiga taalluqli g‘oyat muhim faktlar, qayd va e’tiroflar mavjud. M-n, Sharafiddin Ali Yazdiy, Xoja Ahmad Mustavfiy, Xoja Fazlulloh Abdullays, Ulon Shoshiy, Shayx Sadriddin Ravosiy, Shayx Kamol, Turbatiy, Hofiz Ali Jomiy, Sayyid Kamol Kachko‘l, Abdusammad Badaxshiy, Muhammad Muammoiy, Xoja Hasan Xizrshoh, Xoja Ma’sud Qumiy, Hofiz Yoriy Ayoziy, Riyoziy, Kabuliy, Subhiy, Darvesh Mashhadiy va boshqalar.

Shunisi diqqatga sazovorki, N. shoirlarning ma’naviy qiyofasidagi kamchiliklarni ko‘rsatib o‘tar ekan, aksar hollarda bu nuqsonlarga bar-

ham berilishiga umid b-n qaraydi. Binobarin, bu qaydlarning tarbiyaviy ahamiyatiga ishonadi.

Mayga mukkasidan ketgan shoirlar Sayfiy, Sayyid Imod, Hofizi Sa'd, fitnachi, urushqoqlar Sayyid Quroza, Qutb Lakadang, Abu Nasr, Qavsiy, Shohquli Uyg'urlar timsolida boshqa qalamkashlarni bunday inson uchun yarashiqsiz ishlar b-n mashg'ul bo'lmaslikka da'vat etadi.

N. hunarmand shoirlarga katta husni rag'bat, ularning kasbi-koriga hurmat b-n qaraydi. Kosagarlar – Mashriqiy, Saidiy, Hamdamiy, ko'ftgar – metallga zarb beruvchi Mir Hoshimiy, jomabof – kiyim tikuvchi Najmiy, Hovariy, halvogar Ofatiy, kordgar – pichoqchi Ustod Muhammad Ubahiy; kavshdo'z – Tohiriy, xishtmol-g'isht quyuvchi Darvesh Dehagiy, mudarrislar – Burhoniddin, Fazlulloh Abullays, Shayx Sadriddin Ravosiy, Darvesh Mansur, qiroat ilmi mohirlari – Hofiz Ali Jomiy, Hofizi Yoriy, musiqiy san'atkorlar, nazariyotchilar – Solimiy, Shayxiy, Binoiy, Kamoliddin Udiy, Qul Muhammad va boshqa tabiblardan Darvesh Ali, xattot kotiblar – Jamshid, Majnun, Sulton Ali Mashhadiy, Sulton Ali Qoiniy, munajjim – Kavkabiy, naqqosh – Havoiy, Yoriy va boshqalar.

N. "M.N."da badiiy ijodning asosini, mohiyatini belgilovchi nazariy, chunonchi mazmun va shakl masalasi yuzasidan ham fikr yuritadi. Uningcha, asarda g'oya va shakl birligi bo'lmasa, bunda g'oya yetakchiligiga erishilmasa, asarning qiymati bo'lmaydi. Ali Ohiy, Qobiliy, Mir Sayyid Hasan, Sog'ariy, Shihob, Hurramiy, Abdusamad Badaxshiy, Xusraviy, Riyoziy kabi shoirlar haqida maqolalarda yuqoridagi fikr bosh xat bo'lib o'tadi.

N. adabiyotda ma'lum bo'lgan fikrlarni takrorlovchi, o'zgalar she'rini o'ziniki qilib oluvchi, boshqalarga pul berib, o'z nomidan she'r yozdiruvchi Nargis, Ansiy, Xoja Muso kabi ijodkorlarni ayovsiz tanqid ostiga oladi. N. xalqqa zulm o'tkazuvchi amaldor va badnafs shoirlar (Soneiy, Xoja Musayyab, Abulbaraka va boshqalar) faoliyatini qattiq qoralaydi, ayni chog'da xalq manfaati yo'lida ijtimoiy foydali faoliyatda bo'lgan davlat arboblari, nufuzli shaxslar (Xoja Afzal, Xoja Xurd, Amir Maxmud barlos, Sulton Ahmad Mirzo, Ya'qub mirzo, Boysung'ur mirzo va boshqa) haqida katta hurmat va chuqur samimiyat bilan so'z yuritadi.

"M.N."da N.ning hayot va undagi turli hodisalarni adabiyotda aks ettirishga qonuniy hol deb qaragani, hazil, mutoyiba, istehzo, hajv uyg'otuvchi voqealarga, holatlarga munosabat bildirib, adabiyotning optimistik ruhda bo'lishi lozim deb bilgani Muhammad Muammoiy, Shayxim Suxayliy, Sayyid Adulhaq, Sayyid Kozimiy, Mir Murtoz, Olim, Abdulloh Astrobodiy, Mazhar, Sayyid G'iyosiddin, Jununiy, Kavsariy, Masihiylarga bag'ishlangan maqolalarida yaqqol ko'rinadi. N. buni shoirlar ijodidagi muhim jihatlar deb hisoblaydi.

"M.N."dagi shoirlarning ko'pchiligi "endi paydo bo'lg'on", "emdi arog'a kirgan", "emdi zuhur qilg'on" yosh ijodkorlar, boshqa mamlakat, shaharlardan kelib, Hirot madrasalarida tahsil olayotgan talabalar tashkil qiladi. N. Sayyid Abdullatif, Sa'd, Noziriy, Mir Asadulloh, Behishtiy, Mir Husayn kabilarga to'xtalar ekan, ularning yaxshi shoir bo'lishiga umid bog'laydi. Ma'lumki, N. yosh shoirlarga homiylik qilgan, ijodiy faoliyatlarini to'g'ri yo'naltirib turganidan tashqari ulardan moddiy jihatdan xabardor bo'lib turgan. Adabiyotning kelajagi shular qo'lida deb bilgan.

"M.N." ma'lum darajada o'sha davr adabiyotidagi janrlar haqida ham tasavvur yaratib beradi. Katta ijtimoiy muammolarni ko'tarish va talqin etishda keng imkoniyatlarga ega bo'lgan masnaviy janrida Ashraf, Kotibiy, Jomiy, Ali Ohiy, Shayxim Suhayliy, Abdullo Xotifiy, Xoja Hasan Xizrshoh, Fasih Rumiy, Xoja Imod, Zova Qozisi va boshqalar qalam tebratgan. G'azalnavislikda Gadoiy, Lutfiy, Atoiy, Sakkokiy, Kotibiy, Avhad Mustaviy, Osafiy Mashriqiy, Nujumiy, Olim va boshqa juda ko'p shoirlar mashhur bo'lgan. Qasidanavislikda Ismatullo, Sohib Balxiy, Bobo Savdoiy, Ishqiy va Orifiylar, nasrda esa Abdulvose' (asosan tarixiy asarlarda), Mirxond, Xondamir va

boshqalar samarali ijod qilganlar. Kichik janrlardan qit'a, ruboiy ham rivojlangan.

Muammo, maqlubi mustaviy (palindrom) kabi she'riy turlar ham rivoj topgan bo‘lib, bu hol N. davrida badiiy mahoratga, shaklga qanchalik e'tibor berilganligidan dalolat beradi. N. va Jomiydek so‘z san'atkorlari muammo nazariyasyaiga oid risolalar, ko‘plab muammolar yaratganlari ham bejiz emas, albatta.

N. o‘zining butun faoliyatida o‘zbek tilining ravnaqiga, bu tilda badiiy ijodning keng rivoj topishiga katta ahamiyat bergan. N.ning "M.L." asarida, devonlariga yozgan "Debocha"sida shoirlarni o‘z ona tillarida ijod etishga da'vat etgan. Lekin katta taassuf b-n aytish kerakki, "M.N."-dan 459 shoirdan faqat 39 tasi turkigo‘y bo‘lib, shular orasida zullisonayn shoirlar ham bor. Buning sababini N. "M.L."da juda yaxshi izohlab bergan. Lekin temuriylar sulolasiga mansub shoh va shahzodalarning turkiyda ijod qilganliklari ularning bu masalaga g‘oyat jiddiy qaraganliklaridan dalolat beradi.

"M.N." N.ning eng hayotiy, eng xalqchil asarlaridan biridir. Asar tili g‘oyat jonli, deyarli, sodda, uslubi aniq, puxta va mo‘jaz fikrlar ixcham va ravshan bayon etadi.

Mohiyatan "M.N." ilmiy nasrning go‘zal namunasi esa-da, unda badiiy nasrga xos bo‘lgan qiyofa chizish va tabiat yaratish mahorati yaqqol ko‘zga tashlanadi.

"M.N."dagi N.ning yoshlarga bo‘lgan munosabati uning adabiy dahosi qudratini namoyon qiladi, uni zamonamizga hamnafas san'atkor ekanligini ko‘rsatadi.

"M.N." keyingi davrlarda yaratilgan tazkiralarga g‘oyat muhim ta'sir ko‘rsatdi. Tazkirachilik (q.)da yangi an'anaga asos soldi.

Fors va turkiy tilda yaratilgan qator tazkiralarning mualliflari bu holni alohida ta'kidlab o‘tganlar.

M-n, "Majma ul-xavose" (1016–1597/98) ning muallifi Muhammad Ali Sodiqi Afkor asar muqaddimasida N.dan ilhomlanib, "M.N." ta'sirida asar yaratishga intilganini bayon etadi va N.ni quyosh, o‘zini zarra, N.ni ummon, o‘zini qatra deb ataydi.

"M.N." o‘z muallifining mohir va ziyrak adabiyotshunos olim, o‘tkir va xolis tanqidchi sifatida namoyon qiladi, undagi ma'lumotlarning noyobligi bilan esa fors, tojik, o‘zbek adabiyotlari tarixida alohida muhim o‘rin tutadi.

"M.N."ning ilmiy-tanqidiy matni tuzilgan va 1970-y.da rus tilidagi N. asarlari 10 tomliginining IX tomida ruscha tarjimasi, istiqlolning 20 yilligiga bag‘ishlangan katta hajmdagi 10 kitob nashr etilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Ҳайитметов А. Навоийнинг адабий-танқидий қарашлари. – Т., 1959; Ойбек. Асарлар. IX том. – Т., 1974; Бертельс Е.Э. Навои и Джами. – М., 1965; Болдырев А.Н. Персидские переводы "Маджалис ан-нафаис" Алишера Навои // Ученые записки МГУ, Серия Востоковедческих наук 1952. 128. вып. 3; Ғаниева С. Давр адабиёт ҳаёти кўзгуси. Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. Илмий-танқидий матн. – Т., 1961.*

S.G‘.

"MAJOLIS UN-NAFOIS"NING TARJIMALARI" – Adabiyotshunos olim Rahim Vohidov mazkur risolasida "M.N."ning fors-tojik tilidagi ikki tarjimasi haqida yozilgan. Risolada "M.N." shoir vafotidan 22 yil o‘tib, fors-tojik tiliga o‘girilgani va bir vaqtning o‘zida ikki madaniy markazda ikki tarjimon bu ishni amalga oshirgani aytiladi. Hirotda 1521–1522-yy. orasida shoir va olim Sulton Muhammad Faxriy Hirotiy, 1522–1523-yy.da Qazvinda Muhammad Hakimshoh Qazviniy bu ishni amalga oshiradi. Ulardan yarim asr o‘tgach, Shoh Ali bin Abdul Ali uchinchi marta tarjima qiladi. Yana asarning to‘rtinchi tarjimasi Hindistonda Abdulboqi Sharif Razaviy amaldor Karpotakning buyrug‘iga ko‘ra bajargani, bu qo‘lyozma Madrasda saqlanayotgani ay-

tiladi. Mazkur tarjimalar dastlab A.N.Boldirev, Eron nashri A.K.Borovkov tomonidan, keyinchalik A.Mirzoyev, K.Ayniy, M.Shayxzoda, A. Hayitmetov, N.Mallayev, S.G‘aniyevalar tomonidan o‘rganilgan. A.K.Borovkov Eron nashri haqidagi maqolasida Faxriy tomonidan qo‘shilgan to‘qqizinchi majlisda ko‘plab Movorounnahrlik adiblar haqida ma’lumot berilgani va bu tarjimani o‘rganish zarurligi haqida fikr bildirgan. Tehron universiteti prof.i Ali Asg‘ar Hikmat Faxriy va Qazviniy amalga oshirgan tarjimalarni nashr ettirib, ularga N. haqida so‘z boshi yozadi, “V.”dan parchalar fors tilida ilova qiladi. Faxriy “Latoifnoma”sining Britaniyadagi 7669 raqamli nusxasini hamda Hakimshoh Qazviniy va Shoh Ali bin Abdul Ali tarjimalarini qo‘lga kiritish imkoni yo‘qligi sabab, Eron va Turkiya nusxalariga tayanadi. Faxriy va Qazviniy tarjimalaridan nusxa oladi, olimning qo‘lida “M.N.”ning uch nusxasi borligi asar asliyati va tarjimalarni qiyoslash imkonini beradi.

Risola “Faxriy va uning “Latoifnoma”si”, “Ustoz saboqlariga shogird javobi”, “Tarjima va ta’sir”, “M.N.” Hakimshoh Qazviniy tarjimasida”, “Sakkizinchi bihisht – ustozga sadoqat ramzi” nomli qismlardan iborat. Faxriy Hiraviy “Latoifnoma”si ta’rifida Faxriyning tarjimayi holi beriladi, so‘ng asliyat va tarjima matniy qiyoslanadi. Faxriy N. ga zamondosh bo‘lgani va ko‘plab voqealarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgani, eshitgani uchun ayrim o‘rinlarda asliyatdagi ishoralarni ochiqlab ketganini aytadi. N. Amir Qosim Anvorning tavallud topgan joyini Sarob deb ko‘rsatadi. Faxriy unga birmuncha aniqlik kiritib, “Sarob Tabriz vodiysiga tegishli joy” deydi. Amir Qosim Anvor shuhratining kun sayin oshib borishi taxt hukmroni Shohrux Mirzoga ma’qul tushmaydi va unga “ixroj hukmi” e’lon qiladi. Faxriy shoir tarjimayi holining shu nozik jihati b-n ham qiziqadi va Amir Qosim Anvorga Samarqandga jo‘nash hukmini olib kelgan shaxsning nomi Amir Alika ekanini aytadi. Shundan keyin Qosim Anvor ijodidan yangi she’riy namunalarni keltiradi. (23). Tarjimon tomonidan kiritilgan yangi ma’lumotlar asarning manba sifatidagi qimmatini oshirgani barobarida qisqartirishlar, shoirlarning ijodiga xos xarakterli o‘rinlarning tushirib qoldirilgani ham ta’kidlanadi. “Ustoz saboqlariga shogird javobi” nomli bo‘limda Faxriyning ustoz N. saboqlarini yaxshi o‘zlashtirgani va orttirib to‘qqizinchi majlisni o‘zi qo‘shgani, undagi adiblar haqida ma’lumot berilgan. Jumladan, Amir Qosim Anvorning o‘g‘li Amir Rustam Ali, Najmiddin Kavkabiy, Zahiriddin Muhammad Bobur faoliyati, xarakteri haqidagi mulohazalar borasida ma’lumot beriladi. Hakimshoh Qazviniy haqida ma’lumotlar kamligi uchun tarjimaning qiyosiy tahlil bo‘yicha boy ma’lumotlar berilgan. Umuman, risola N. ijodining ilk tarjimalari va tarjimonlar mahorati haqida ma’lumot beruvchi muhim ilmiy tadqiqotdir.

Ad.: *Воҳидов Р. “Мажолисун-нафоис”нинг таржималари. – Т., 1984.*

S.O‘. Naz.B.

MAZDAK – Sharq yozma manbalarida uchraydigan salbiy xarakterdagi obraz. N. “T.M.A.” asarida uning kirdikorlari haqida hukmdor Qubodga bag‘ishlangan fiqrada ma’lumot bitgan. N.ning yozishicha, u M.i lain nomi b-n mashhur bo‘lgan, hukmdor Kubod zamonida payg‘ambarlik da’vo qilgan va hukmdorni ham yo‘ldan urgan. Davlat boshqaruvi izdan chiqib, natijada xalq qo‘zg‘olon ko‘tarib, shoh Kubodni band qilishadi. Ukasi Jamshidni taxtga o‘tkazadi. M.i lain esa Ozarbayjonga qochadi. N. ma’lum ma’noda mazkur obraz misolida hukmdorlarni davlat boshqaruviga va el, ulus hayotiga rahna soluvchi turli fitnalardan ogohlantirgan.

Mazdak haqidagi batafsil ma’lumotlar talqini Firdavsiyning “Shohnoma” asarida uchraydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Фирдавсий-Тусий. Шоҳнома. 2-китоб. – Т., 1970.*

B.R.

MAZHAB (ar.) – yo‘l, tariq, maslak, e’tiqod yo‘li. Umuman, an’anaviy diniy huquq doirasidan chiqmagan holda shariat masalalarida yengilroq yoki qattiqroq hukm chiqarishlari bilan bir-biridan farqlanuvchi yo‘nalishlar, oqimlar. Ko‘chma ma’noda: rasm, odat, yo‘l; o‘z qarashlari va aqidalari bilan boshqalardan ajralib qolgan guruh. VIII-IX asrlarga kelib, shariatning shakllanishi jarayonida huquqshunoslik– fiqh sohasida juda ko‘p mazhablar yuzaga kelgan. Hozirgi vaqtda sunniylikda to‘rtta mazhab – hanafiylik, molikiylik, shofiiylik va hanbaliylik saqlanib qolgan. Bu mazhablar ularning asoschilarining nomidan olingan (Abu Hanifa (Imom A’zam), Molik ibn Anas, Shofiiy, Ibn Hanbal). Shariat mazhablari diniy firqalardan farq qiladi. Sunniylikda to‘rttala mazhab ham teng hisoblanadi va yirik musulmon universitetlarida to‘rt mazhab bo‘yicha alohida darslar o‘qitiladi. Shialikda bitta mazhab bor – ja’fariylik. Asoschisi Ja’fari Sodiq.

N. hanafiy mazhabida bo‘lgan va barcha mazhab imomlariga yuksak ehtirom ko‘rsatgan. U “N.M.” asarida to‘rt mazhab imomlari va ularga xos fazilatlarni birma-bir yoritgan. Ular hayoti b-n bog‘liq muhim ma’lumotlarni keltirib o‘tgan. Jumladan, Imom A’zam ulug‘ligiga doir: “Ummatimdan birining nomini Nu’mon bin Sobit, kunyasini Abu Hanifa deb ataydilar. Va o‘sha kishi ummatimning chirog‘idir”, hadisini keltiradi. N.ning yozishicha: “...naqldurki Mustafo s.a.v.ning mutahhar ravzasi boshig‘a borib aytti: “As-salomu alayka, yo sayyid al-mursalin”. Ravzadin javob keldi: “Vaalayk as-salom, yo imom al-muslimin”. “... bir kecha (Imom A’zam) voqeada (tushda) ko‘rdikim, Mustafo (s.a.v) muborak so‘ngaklarin lahadda yig‘ib, ba’zini ba’zidin ayiradur. Va bu voqeaning haybatidin uyg‘ondi va Ibn Sirinning as’hobidin biriga aytti. Ul mundoq ta’bir qildikim, sen Rasul (s.a.v.)ning ilmi va sunnati hifzida biyik darajaga yetkaysan, andoqki, ahodisda mutasarrif bo‘lg‘aysen va sahihni saqimdin ayirg‘aysen”.

Shunga o‘xshash boshqa mazhab imomlari haqida ham diqqatni tortadigan eng muhim ma’lumotlarni keltirib o‘tadi. Bag‘dodda mu’tazila oqimi g‘olib bo‘lib, keng yoyilganda Ahmad ibn Hanbalga: “Qur’onni maxluq degin”, deb taklif qilishadi. U aytmaydi. Natijada qari va zaifligiga qaramasdan, unga ming qamchi urishadi. Baribir Qur’onni maxluq demaydi. Lekin qamchi zarbining alami bilan olamdan o‘tadi. N. imomning o‘z e’tiqodi va so‘zida sobit turishini ta’riflab yozadiki: “Bu ish odamzoddin kelur ish emaski, din taqviyotida ul buzurgvordin zohir bo‘ldi”.

N. dunyoning bevafoligi, uning makr-u hiylalari ko‘pligini eslatib, uni to‘rt mazhabga ko‘ra uch taloq qilishni, ya’ni undan butunlay forig‘ bo‘lishni, unga aldanib qolmaslikni, vaqtni foydali narsalarga sarf qilishni ta’kidlab o‘tgan:

Jahon zoli ham makr etar, ham nifoq,
Ani to‘rt mazhabda qil uch taloq.

Dahr zolin to‘rt mazhab birla qildim uch taloq,
Fard qildi bori mundoq kadxudoliqdin meni.

N. “T.A.H.” asarida Matushlax ibni Axnux dono odam bo‘lgani, farzandlari ham ko‘p bo‘lib, doim “Qobil avlodi ustiga” lashkar yuborib, ularni nest-nobud qilib turgani va uning Sobiy degan o‘g‘lining aholo bir mashhur mazhablari bor”ligini ham qayd etib o‘tadi.

Shoir “N.M.”da Shayx Sayyid Nosir Xisravni zikr qilar ekan, “Ro‘shnoyinoma” asaridagi baytlar mazmuniga ko‘ra, so‘fiylar uning mazhabini malomat qilishganini, Shayx Ibrohim Sayyod Bag‘dodiyning “mazhabi tajridu inqito’”ligini, ya’ni tasavvufda tanlagan yo‘li uzlat va xalqdan chetlashish ekanini keltirib o‘tgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Мазҳаблар – бирлик рамзи. – Т., 2014.*

S.R.

MAZHABI KALOMIY (ar. – daxldorlik, aloqadorlik) – shoirning o‘z fikri isboti uchun haqiqiy, hayotiy dalil keltirishidan iborat ma’naviy san’at. Atoulloh Husayniyning yozishicha, “Mazhabi kalomiy kalomda o‘z matlubining isboti uchun kalom ilmi ahli uslubi bila dalil kelturmaktin iborattur. Ul uslub andog‘durkim, dalil haqiqiy bo‘lmog‘i kerak, e’tiboriy emas, ya’ni so‘zlaguvchi e’tiqod bilan haqiqatta dalil deb ishong‘ay, dalil ermas deb bilmag‘ay va ani latiflik bila dalil qilg‘ay, dalil ham aniq bo‘lmog‘i keraktur”. Uning husni ta’lildan farqi shundaki, husni ta’lilda yolg‘on, lekin go‘zal dalil keltiriladi, o‘quvchi uning yolg‘onligini bilib tursa-da, azbaroyi go‘zalligidan ishongisi keladi. Mazhabi kalomiyda esa asosan aniq, hayotiy dalil keltiriladi, albatta, ba’zida faraziy dalillarga ham yo‘l qo‘yiladi.

N.ning san’atkorlik mahoratini keng va chuqur tadqiq etgan Y.Is’hoqovning xulosasiga ko‘ra: “G‘azalda mazhabi kalomiy ko‘pincha bir bayt doirasida qo‘llanadi. Dalil keltirish turli ko‘makchi so‘z va bog‘lovchilar (nedinkim, ne uchunkim, chunkim, ne tong, g‘arib emas, ne ajab, ajab ermas, kimki va h.k.) vositasida amalga oshiriladi”. M-n:

Zulf-u ruxsoring g‘ami, ne tong,
buzug‘ ko‘nglim aro:
Ajdaho gar bo‘lsa vayron ichra,
maxzan ham bo‘lur.
Ista yirtuq janda kiyganlarda ma’no
maxzanin −
Kim, bu yanglig‘ ganj o‘lur ul
nav’ vayronlar aro.

Ko‘zlaring xunxorlig‘din doimo
bemor erur,
Boda ko‘p ichkandin andoqkim,
bo‘lur el notavon.

Birinchi baytda shoir buzuq ko‘ngilda yor zulfi-yu ruxsori g‘ami borligini ajdarho makon tutgan vayronada xazina ham bo‘lishi, ikkinchi paytda ma’no ganji yirtiq to‘p kiyganlarda bo‘lishini xazina vayronada bo‘lishi, uchinchi baytda esa yor ko‘zlarining ko‘p qon ichgandan bemorligini ko‘p may ichgan kishining zaif bo‘lishi bilan asoslaydi.

Ad.: *Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъу-с-санойиъ (А. Рустамов тарж.). – Т., 1981; Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т., 2006; Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2010.*

S.R.

MAZHAR (ko‘pligi, mazohir) – 1. Biror narsaning ko‘rinadigan, zohir (paydo) bo‘ladigan joyi; ko‘rinish, aks, partav, namoyish, soya. 2. Allohning ism, sifat va fe’llarining ashyo va moddada zuhur etishi. N. asarlarida bu so‘z turli ma’nolarda, asosan, hamd va munojot g‘azallarda uchraydi. N. bu olam va undagi narsalarni Haq ismlari va tajallilarining mazhari sifatida qo‘llaydi. Gul Haq husnining mazhari, go‘zalligini namoyish qilgani uchun bulbulni o‘rtaydi, oshufta qiladi. Parvona o‘zini shamga uradi. Quyosh go‘yo yog‘dusi va jilosi b-n Haqning tajallisini namoyish qiladi.

Magar tajalliyi husnungg‘a mazhar o‘ldi quyosh,
Ki zohir ayladi oncha jilo bila yog‘du.

Bu dunyoda Haq zoti odamlar ko‘zidan pinhon bo‘lsa-da, jahon uning ism va sifatlarini oshkor va namoyish qiladigan “mazhar”dir. Odatda, zohidlar dunyoni mazammat qiladilar, unga past nazar b-n boqadilar. N. esa zohidlarning, aksicha, bu dunyoga haqir ko‘zi b-n qaramaydi. Undagi har bir narsada Haq partavini, sun’ini ko‘radi:

Boqma ey zohid, haqorat birla ashyo sorikim,
Bo‘lmag‘an oning sifoti mazhari yo‘q hech zot.

Ayrim baytlarda shoir yor husn-u jamolidan butun olamni munavvar va bahramand qilgani lekin o‘zi mahjur va mahzun qolganini aytadi.

Mazhari husn-u jamol o‘ldi yuzung andoqkim,
Shod etib olam elin, lek meni mahzun qildi.

N. mazhari husn, mazhari ajoyib, mazhari kull, mazhari karomat, mazhari sun’ kabi iboralar orqali o‘ziga xos turli ma’nolarni ifodalaydi: “...Mazhari sun’i Haq taborak Shayx Abdulloh Muborak...”, “...Juzv desam, qaysi juzvning har harfi mazhari kull bo‘la olg‘ay...”:

Kim istasa mazhari karomat bo‘lmoq,
Har nav’ ishda istiqomat bo‘lmoq.

Ad: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик, 2-жилд. – Т., 1983.*

S.R.

MAY (SHAROB, BODA, CHOG‘IR) – mast qiluvchi ichimliklar; majoziy ma’noda muhabbat; asosan, ishq-muhabbat sharobi, vahdat mayi. N. asarlarida M. o‘z ma’nosida ham, majoziy ma’noda ham qo‘llangan. Shoir odamlarni mast qilib, aqlini ketkazuvchi M.ni qoralagan. N. “M.” asarida Badiuzzamon mirzoga yozgan maktubida uni otasiga itoat etishga, adolatli bo‘lishga va barcha yomonliklar keltirib chiqaradigan “ummul-xabois” (gunohlarning onasi) bo‘lgan – chog‘ir ichishdan ehtiyot bo‘lishga chaqirgan. Ulug‘ shoir Husayn Boyqaroga ham mutlaqo chog‘ir ichishdan qutulishni, “majlis qurub chog‘ir icharg‘a ko‘p hirs ko‘rsatilmasa, agar ahyonan bizzarur voqe’ bo‘lsa” ma’lum qoidalarga amal qilishni, fuqaroga “chog‘irning man’i dog‘i lozim”ligini taklif qiladi. N. “M.Q.”da: “...avom qozi may ichsa, o‘ldirishga va “do‘zax o‘ti” yetmasdan kuydirishga loyiq. “May ichmak nahy erur Tengri qavli, har hol bila aning tarki avli...”. “...badmastning dambadam ichishidan unga hech foyda yo‘q. U odamiyligini o‘ldirish uchun zahar ichadi”, qabilida keskin gapiradi.

N. asarlarida M.ning turli nomlari va sifatlari uchraydi. Mayi nob, sharobi nob – toza va tiniq may; bodayi ol – qizil rangli may; Rohi rayhoniy – ko‘kimtir va xush isli may, Rahiq – sof, tiniq may, a’lo may; sabu ham ba’zan M. ma’nosida ishlatilgan. La’li sayyol, sahbo – qizil may; Tund may – kuchli may, o‘tkir may; Nabiz – xurmo yoki uzumdan qilingan may; Raz suyi, farzandi raz, raz qizi kabi iboralar ham majoziy ma’noda mayni anglatgan. Ummul-xabois (gunohlar onasi) deganda ham may tushunilgan. Achchig‘ sharbat – may; Shira – endi yetilgan may; Bodayi humro – qizil may.

Barqi raxshon ham majozan tiniq may va h.k.., N. ba’zan M.ning sinonimi sifatida forscha “mul” so‘zini ham qo‘llaydi.

M. tasavvufiy asar va lug‘atlarda turli ma’nolarni bildirib kelgan. M. va uning ma’nodoshlari istiora tarzida Haq ma’rifati va uning ishqini anglatib kelgan. Naql qilinishicha, Hazrati Muhammad (s.a.v.) me’rojda ilohiy ishq sharobidan totib, behush bo‘lgan ekanlar. Shu bois ishq sharobi tasavvuf adabiyotida asosiy timsollardan bo‘lib kelgan va solikning turli holatlarini ifoda etgan. Sharob – ishq, ilohiy muhabbat; ishqning g‘alaba qilishi. Haqiqiy mahbub jilvalanib, muhabbat g‘alaba qilgan paytda, solik qalbiga quyilib uni mast-u behush qiluvchi zavq, vajd va holatdir. Bu holat chulg‘ab olganda aql muhokamalari va xayol xohishlari zoyil bo‘ladi, mast-u mustag‘raqliq holati yuz beradi. Sharob – mastlikdan kinoya va Haq muhabbatining jazbasidir.

“Payg‘ambar alayhissalom Alloh taolodan hikoya qilib aytdilar: “Ey Ahmad (ya’ni, Muhammad alayhissalom), mening huzurimda do‘stlarim uchun bir sharob bor. Qachonki (do‘stlarim) uni ichsalar mast bo‘ladilar. Agar mast bo‘lsalar, xursand bo‘ladilar, agar xursand bo‘lsalar, talab qiladilar, agar talab qilsalar topadilar, agar topsalar, tavba qiladilar, agar tavba qilsalar, xalos bo‘ladilar, agar xalos bo‘lsalar, yetadilar, agar yetsalar birlashadilar, agar birlashsalar, ular bilan mening oramda hech qanday farq qolmaydi”.

(Muhayyir, “Devon”, “Muharrir”, 2010, 23− B.)

Sharobi xom, sharobi puxta – xom sharob haqiqiy bandalikdan yiroq bo‘lgan go‘zal hayot bo‘lsa, puxta (yetilgan, pishgan) sharob – bandalik, oshiqlikning musaffo, xolis hayotidir.

Sharoban tahuro (toza, sof sharob) – Qur’onda zikr qilingan va mo‘minlarga jannatda ulashiladigan sharob. Shayx Akbarobodiyning “Nodir ul-me’roj” asarida yozilishicha, mo‘minlar jannatda sharobi tahurdan ichsalar, Alloh taoloning benazir va beqiyos diydoriga musharraf bo‘lar ekanlar (“Inson” surasi, 21-oyat).

N. devonining dastlabki g‘azalidayoq M. atamasini unga aloqador so‘zlar, tushunchalar (soqiy, mayxona, jom va h.k.) b-n birga zikr qiladi va uning tasavvufiy-irfoniy ma’nosi borligiga urg‘u beradi:

Sengumonqilg‘andino‘zgajom-umaymavjuderur,
Bilmayin nafiy etma bu mayxona ahlin, zohido.
G‘ayrnaqshidinko‘nguljomidabo‘lsazangig‘am,
Yo‘qtur, ey soqiy, mayi vahdat masallik g‘amzudo.

Shoir M. atamasini majoziy ma’noda qo‘llar ekan faqat ilohiy ishq manbasi emas, umr, yoshlik damlarini g‘animat bilish, hayotdan zavqlanish, orzularga intilish, sog‘inch va armon kabi ma’nolarida ham istifoda etgan:

Ey Navoiy, dam bu damdur,
tut g‘animat, boda ich,
O‘zga bir damg‘a yetar-yetmasga
chun voqif emang.

Ishq-u muhabbat bir necha jihati b-n mayga o‘xshagani uchun ham M.ni asosan ishq ma’nosida qo‘llab kelishgan. M. ishq ramzi qilib olinganda “jom” so‘zi va uning ma’nodoshlari ko‘ngilni, “mayxona” majozan oshiqlar jam bo‘ladigan va may ulashiladigan joyni, soqiy may ulashadigan murshidni va h.k. ma’nolarni bildiradi. Jomiyning “Lavome’” asarida M. va ishq orasidagi o‘nta o‘xshashlikni ko‘rsatgan. Jumladan, “...ikkinchisi, may o‘z zoti haddida muayyan bir shaklga ega emas. Qaysi idishga tushsa, shu idishning ichki shaklini oladi. Xuddi shuningdek, ishq aslan mutlaq bo‘lib, uning zuhuri muhabbat ahlining qobiliyati va iste’dodiga yarasha sodir bo‘ladi. Oshiqlar orasidagi tafovut ishqning zotiy xususiyatiga emas, ularning ko‘ngul idishiga bog‘liq. ...oltinchisi, may ham, ishq ham kishi boshidan kibr-u havoni o‘chiradi va niyoz-u tavozuga tushiradi. Biroq ichkilikning oqibati xorlig-u razolatdir, pok ishq natijasi izzat-u sharafdir. Yettinchisi may ham ishq ham sirni fosh qiladi. Asrlar davomida ayon bo‘lgan haqiqat-u ma’rifat sirlarini ishq yuzaga chiqaradi. Demak, ishqning M. b-n o‘xshash tomonlari ko‘p bo‘lsa-da, mohiyatan ular bir-biriga zid tushunchalardir.

N. ba’zan M. va ishq so‘zlarini bir bayt doirasida qo‘llab, yanada chuqurroq ma’nolarni ifoda etadi.

Navoiyo, bu o‘tar olam ichra besh kun qil
O‘zungni may bila mashg‘ul-u ishq birla ovut.

Ko‘rib o‘tkanimizdek, M. atamasining asl va majoziy manolarini bilmasdan, uning she’rdagi o‘rni va ahamiyatini idrok qilmasdan N. ijodini to‘g‘ri tushunish va anglash imkonsizdir.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Саййид Жаъфар Сажжодий. Фарҳанги истилоҳот ва таъбироти ирфоний. – Теҳрон. 1370 (ҳ.-ш.); Девони Хожа Ҳофизи Шерозий. Бомбай. 1277 (ҳ.-ш.); Рустамов А. Сўз хусусида сўз. – Т., 1987; Алийбек Рустамий. Адиблар одобидан адаблар. – Т., 2003; Асадов М. Соқийнома: тарих ва поэтика. – Т., 2020.*

M.A., S.R.

MAYKADA – 1. Xarobot. 2. Majoziy: xonaqoh. 3. Yaqin do‘stlar davrasi. 4. Komil pirning ko‘ngli. Jabarut (ulug‘lik) olami va munojot maqomi ham ko‘zda tutiladi. Chunki oshiqlarning sarmastligi shu yerda namoyon bo‘ladi.

Dedimki, maykadadin xonaqah yo‘lin tutayin,
Netayki, ul sari yo‘l bermas istixora qilib.

Ya’ni maykadadan xonaqoh sari yo‘l olay desam, bu ishning oqibati yaxshi bo‘lmasligidan ogohlantirib, menga yo‘l bermaydi.

Yoki:

Faqih-u – Ka’ba, rind-u – maykada,
xushdur Navoiykim,
Sening yoding bila mundin erur ozod-u
andin ham.

Haq ishqidan mast-u mustag‘raq so‘fiyning na Ka’ba b-n ishi bor-u na maykada b-n. Unga ilohiy muhabbatning o‘zi kifoya.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2011; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва таъбироти ирфоний. – Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.); Миръоти ушшоқ // Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. – М., 1965; Комилов Н. Тасаввуф. – Т., 2009; Асадов М. Соқийнома: тарих ва поэтика. – Т., 2020.*

M.A.

MAYXONA – may, sharob ichiladigan joy. Mumtoz adabiyotda M. timsoli orqali ilohiy zavq-u shavq, ma’rifat to‘lib toshgan komil inson, orifning ichki, botiniy olamiga ishora qilinadi. Shuningdek, M. deganda, bu olamning o‘tkinchi hoy-u havaslaridan, turli-tuman yolg‘on-u soxtaliklardan uzilib, ko‘ngil osoyishtalik topadigan, ruh sokinlikka yetishadigan ma’naviy maskan tushuniladi. Tasavvufda mayxona “zavq-u shavq, ilohiy ma’rifat to‘lib-toshgan komil inson – orifning botiniy dunyosi va ruhi mutlaq manbayidir”. Bu atama olami lohut ma’nosida ham keladi. Olami lohut zoti ahadiyat, zoti ilohiydirki, solik u maqomda fanofillohlikka erishadi. “Mayxona haqiqiy mahbub va matlub ishqiga sohib bo‘lgan sadoqatli do‘stlar yig‘iladigan joydir. Ular haqiqat bodasidan sarmast, tili va dili bir bo‘lib, matlubga vosil bo‘lish uchun harakat qiladilar. M. – Lohut maqomi va zoti yagona bo‘lgan hazratdir. Hamma mavjud narsalarning jom va sog‘ari u mayxonaning muhayyo bodasidan limmo-lim to‘la va boqiydir. Bu mayxonaning mayparastlari faqr tuprog‘ida mast-u xarob yiqilganlardir”. M. komil kishilarning o‘zaro musohabalari, suhbatlaridan bahramand bo‘ladigan joy, shuningdek, ilohiy olamni ham ifoda etadiki, N. g‘azallarida ham u yuqoridagi mazmunlarda ishlatilgan:

Aylab o‘zni mast-u bexud chiqmasun mayxonadin,
Kimki, mendek davr elidin ko‘nglida ozori bor.

Kimningki men kabi davr elidan ko‘nglida ozor bor, o‘zini unutadigan darajada mast bo‘lib, mayxonadan chiqmasin.

Ad.: *Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011; Сажжодий Жаъфар Саййид. Фарҳанги мусталиҳоти урафои мутасаввифа ва шуаро. – Теҳрон, 1332 ҳ; Рафиддинов С. Мажоз ва ҳақиқат. – Т., 1995; Очилов Э. Бир ҳовуч дур. – Т., 2011; Асадов М. Соқийнома: тарих ва поэтика. – Т., 2020.*

M.A.

MAKORIM – (ar.) fazilatlar, izzat-u ehtrom. Makorimi axloq – go‘zal, olijanob xulqlar. Muhammad (s.a.v.) hadislaridan birida: “Men go‘zal xulqlarni kamolga yetkazish, mukammallashtirish uchun yuborildim”, deb marhamat qiladi. N. Muhammad (s.a.v.)ga bag‘ishlangan g‘azallarining barchasida u sharafli Zotning ulug‘ va oliy xulqlarini maqtaydi. Bir o‘rinda u kishiga Tangri tomonidan mukammal axloq berilganini shunday ta’kidlaydi:

Zihe azalda karam aylabon sanga Xalloq,
Karim xilqat ichinda makorimi axloq.

G‘iyosiddin Xondamirning “Makorim ul-axloq” nomli asari ham bor bo‘lib, N.ning hayot va ijodini, yashash tarzini va fe’l-u odatlarini yoritishga bag‘ishlangan.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Буюклардан буюк Муҳаммад алайҳиссалом. – Т., 2017.*

S.R.

“MAKORIM UL-AXLOQ” (Go‘zal xulqlar) − mashhur muarrix G‘iyosiddin Xondamirning N.ning go‘zal xulqi va ezgu ishlariga bag‘ishlab yozgan asari. N. tarbiyasida kamolot kasb etgan va uning homiyligida yashab ijod qilgan Xondamir bu yaxshiliklarning minnatdorchiligi o‘laroq valine’matining ibratli hayoti va faoliyatini tarixga muhrlash maqsadida mazkur asarini yozadi, lekin uni oqqa ko‘chirib, asar qahramoni nazaridan o‘tkazishga ulgurmaydi.

“M.A.” − muqaddima, o‘n maqsad va xotimadan iborat. Dastlab muallif asarni yozishdan maqsadini bayon qiladi. Unda aytilishicha, N. ning “lutf-u marhamati anhori yoqasida o‘sgan” Xondamir bu mehribonchiliklarning shukrini ado etish uchun qanday xizmatga bel bog‘lasam ekan deb o‘ylab yuradi va oxiri kelajak avlod uchun ulug‘ amirning ezgu insoniy fazilatlari va tahsinga sazovor ishlari haqida bir kitob yozib, bu favqulodda betakror zotning tabarruk nomini tarix sahifalariga muhrlashni maqsad qiladi.

“Muqaddima”da ulug‘ shoirning tug‘ilishi, bolaligidan o‘tkir zehni, nozik ta’bi, alohida layoqati b-n ajralib turishi va maktabdagi tahsili xususida so‘z boradi. Jumladan, uning 844-hijriy y.ning ramazon oyining 17-kunida (milodiy 1441-y. 9-fevralda payshanba kuni) tovuq muchali ostida tug‘ilgani, to‘rt yoshida maktabga borgani, favqulodda qobiliyat va fazilatlari bilan hammani hayratga solib, tilga tushgani haqida ma’lumot beriladi.

Birinchi maqsad “Aql va idrokning sharaf va darajasi to‘g‘risida” deb nomlanib, N. tafakkurining teranligi va sohibtadbirligi xususida fikr yuritiladi va Husayn Boyqaroning uning maslahati bilan ish tutib, Yodgor mirzoni yenggani bilan bog‘liq ikki hosida hikoyat o‘laroq kiritiladi.

Ikkinchi maqsad “Ilmning fazilati va olimlarning martabasi haqida” deb atalib, unda N.ning Samarqandda tahsil olib, o‘z davrining barcha ilmlarini egallagani, amirlik davrida iste’dod va hunar sohiblarini qo‘llab-quvvatlagani; talabalarga ta’lim olishi u-n barcha sharoitlarni muhayyo qilib bergani; qurdirgan masjid-madrasalari, xayriya binolari va unga bag‘ishlab yozilgan asarlar haqida ma’lumot beriladi.

Uchinchi maqsad “She’rning afzalliklari va shoirlarning baland martabalari haqida” bo‘lib, N. iste’dodi qirralari va ba’zi asarlarining yozilishi xususida fikr yuritiladi. Lutfiyning N. iste’dodiga bergan bahosi, “Tuhfat ul-afkor” qasidasining yaratilishi, Jomiyning “X.”ni ulug‘lashi b-n bog‘liq ma’lumotlar shular jumlasidandir.

To‘rtinchi maqsad “Insonning fazilati, fazilatli so‘z ustalarining martabasi to‘g‘risida”. Bu bob buyuk so‘z san’atkorining “M.N.”, “T.A.H.”, “T.M.A.”, “X.M.”, “M.Q.” kabi nasriy asarlari va kitoblari ta’rifiga bag‘ishlangan.

Beshinchi maqsad “Dunyoni sevmaslik bayonida” deb nomlanib, unda N.ning tasavvufga munosabati, darveshlikka mayli, yuksak lavozimlarda ishlab ham mol-dunyo yig‘ishga qiziqmagani, bil’aks topgan boyligini xayriya ishlariga sarf qilib, bu borada amalga oshirgan bunyodkorlik faoliyati haqida hikoya qilinadi.

Oltinchi maqsad “Shariat arkonlariga rioya qilish bayonida” deb atalib, N.ning komil musulmon bo‘lgani, diniy ahkomlarni bekam-u ko‘st bajargani, ko‘plab masjid-madrasalar qurgani va ularni ta’mirlagani, xayr-u sadaqalari xususida gapiriladi.

Yettinchi maqsad “Mehribonlik va marhamat bayonida” bo‘lib, unda ulug‘ shoirning olijanobliklari, lutf-u marhamatlari, mehr-u shafqatlari ulug‘lanib, ular bilan bog‘liq bir qator voqealar hikoya tarzida beriladi.

Sakkizinchi maqsad “Tavozening fazilati to‘g‘risida” deb nomlanadi. Bu faslda shoirning

qancha ulug‘ bo‘lsa, shuncha kamtarligi, hamisha odamlarga yaxshilik qilib, ularning og‘irini yengil qilishga harakat qilishi haqida gapiriladi va bu boradagi ishlariga dalil sifatida bir necha voqea keltiriladi.

To‘qqizinchi maqsadning nomi − “Karam va saxovatning sharafi haqida”. Unda N.ning himmat va saxovatli zot ekanligi aytilib, bunga misol tariqasida bir necha voqea hikoya qilinadi. Tamagir bir gadoga so‘nggi aqchasini sadaqa qilishi, Atoulloh Husayniyga shaharning go‘zal joyidan hashamatli hovli olib berishi b-n bog‘liq voqealar shular jumlasidandir.

O‘ninchi maqsad N. hayotiga oid latifalar va mutoyibalarni o‘z ichiga oladi. Faslda keltirilgan 10 ta mutoyiba shoirning hozirjavobligi, topqirligi, hazil-mutoyiba ustasiligini ko‘rsatadi.

“Xotima”da ham N. hayoti b-n bog‘liq ba’zi bir qiziq holatlar va ajoyib hikoyalar keltiriladi.

Asar buyuk shoirning o‘limiga oid tafsilotlar tasviri bilan yakunlanadi.

“M.A.” N. tavalludining 500 yilligi munosabati bilan taniqli matnshunos P.Shamsiyev tomonidan biroz qisqartirilgan holda o‘zbek tiliga tarjima qilinib, 1948-y. I.Sulton so‘zboshisi b-n nashr etilgan. 1967-y. M.Faxriddinov bilan birgalikda to‘ldirilgan tarjimasi ikkinchi marta chop qilindi. Keyin undan parchalar “Navoiy zamondoshlari xotirasida” to‘plamiga kiritildi.

Ad.: *Ғиёсиддин бинни Ҳумомиддин Хондамир. Макорим ул-ахлоқ (яхши хулқлар). – Т., 1948; Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Т., 1967; Хондамир. “Макорим ул-ахлоқ”дан // Навоий замондошлари хотирасида (Тузувчи Б.Аҳмедов). Т., 1985; Аҳмедов Б. Хондамир. – Т., 1965; Юнусова Д. Хондамир // Буюк сиймолар, алломалар. 2-китоб. – Т., 1996.*

E.O.

MAKTABDOR AYOL – “N.M.”dagi obraz. Ansoriy Hiraviy to‘rt yoshida Hirotdagi bir xotin maktabida o‘qib, saboq chiqarganini xotirlaydi. Bu xotiraga tayanib, o‘tmishda ham farzandlarning savodli, ma’rifatli bo‘lishida maktabdor ayollarning – onalarning o‘rni borligi ayon bo‘ladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик. 10-жилд. – Т., 2011.*

B.R.

MALEXOVA Alla Nikolayevna (28.11.1938, Leningrad). Leningrad davlat universitetini tugallagan va mazkur dargohda dotsent bo‘lib ishlagan.

U “Navoiyning “Lison ut-tayr” dostoni poetikasi” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasi yoqlagan (1978). M.A.N. “M.L.”ni rus tiliga tarjima qilgan va N. o‘n tomligi (rus tilida) tarkibida nashr ettirgan.

M.A.N.ning qator ilmiy maqolalari “L.T.” dostonining kompozitsion va obraz vositalari tahlili asosida murakkab majoziy mohiyatni ochib beradi.

Ad.: *Малехова А.Н. Поэтика притч в поэме Навои “Лисан ут-тайр” (Язык птиц) Вестник МГУ, №2. Истор.яз и лит-ра. Вып. 1, 1978; Малехова А.Н. К характеристике образной структуры текста в поэме Навои “Лисон ут-тайр” (Язык птиц). Советская тюркология. – Баку, 1981.*

S.G‘.

MALLAYEV Natan Murodovich (1922–1996, Toshkent) – f.f. d-ri, prof., O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, nuktadon munaqqid, Sharq adabiyotining donishmandi, mutarjim, zabardast n.shunos. M.N.M. 1948-y. ustoz Maqsud Shayxzoda rahbarligida “Munis Xorazmiyning hayoti va ijodiy merosi” mavzusida nomzodlik ishini himoya qildi. Shundan so‘ng olim Xorazm davlat pedagogika institutida, Toshkent Davlat universiteti (hozirgi O‘zMU) da hamda umrining oxiri (1996)gacha Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutida

o‘qituvchi, dotsent, prof., kafedra mudiri sifatida faoliyat ko‘rsatdi, yosh tadqiqotchilar, aspirant va doktorantlarga ustozlik qildi.

O‘tgan asrning 60-yillari boshlaridan e’tiboran M.N.M. butun diqqat-e’tiborini Sharq xalqlari mumtoz adabiyotini yanada chuqur o‘rganishga qaratdi: adabiyot tarixi bo‘yicha dastur va majmualar tuzdi. 1953-y. o‘rta maktablar u-n “O‘zbek adabiyoti tarixi” darsligini bitdi, “X–XII asrlar adabiyoti” (1958) risolasini yaratdi. Undan keyingi yillarda u o‘zbek mumtoz adabiyotining kam o‘rganilgan manbalari bo‘yicha bir qancha maqolalar yozdi, qadimiy, boy adabiyotimizga oid ko‘plab qo‘lyozma nusxalarni ko‘zdan kechirdi, manoqib va tazkiralarni o‘rganib chiqdi. Natijada, universitetlarning filologiya fakultetlari talabalari uchun “O‘zbek adabiyoti tarixi” darsligi (1-kitob) yuzaga keldi. Yaqin 30 yil davomida oliy o‘quv yurtlarimizda barqaror darslik sifatida xizmat qilgan bu kitobning shu tizimdagi boshqa darsliklardan tub farqi bor edi. Zeroki, darslikni yozishda muallif, bir tomondan, hamkasblarining tadqiqotlaridagi fikr, mulohazalarini yagona tizimga solib, izchil va ommabop tarzda bayon qilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, “Qutadg‘u bilig”, “Hibat ul-haqoyiq”, “Miftoh ul-adl”, N.ning nasriy asarlari, “Devoni Foniy”sidan namunalarni ilk bor iste’molga kiritib, keng o‘quvchilar ommasiga tahliliy taqdim etgan edi. Shuning u-n darslik qayta-qayta nashr etildi.

O‘tgan asrning 60-yillari o‘rtalaridan e’tiboran M.N. N. ijodini o‘rganish va shu yo‘lda shogirdlar tayyorlashga ham jiddiy e’tibor berdi: olim N. asarlarining 15 jildlik o‘zbekcha, 10 jildlik ruscha nashrlarini tayyorlash va chop ettirishda faol qatnashdi. O‘zbekiston Davlat adabiyot muzeyini tashkil qilishda ustoz Hamid Sulaymonga yaqindan ko‘maklashdi. Ana shu yillar davomida M.N.M. “Navoiy ijodining xalqchil negizi”, dunyo n.shunosligi tarixi haqida “Asrlar e’tirofi va ta’zimi”, “Navoiy va xalq og‘zaki ijodi” (o‘zbek va rus tillarida), “Buyuk o‘zbek shoiri va mutafakkiri” (o‘zbek, qoraqalpoq va rus tillarida) kabi risola va monografiyalarini e’lon qildi; “Navoiy lirikasi” kitobini nashrga hozirladi.

1978-y. olim “Navoiy va xalq og‘zaki ijodi” tadqiqoti uchun f.f. d-ri ilmiy darajasini olishga musharraf bo‘ldi. Mazkur keng qamrovli monografiya, ayniqsa, ikki jihatdan g‘oyatda qimmatlidir: birinchidan, olim ushbu fundamental ilmiy asari b-n o‘zbek adabiyotshunosligida mumtoz adabiyot va xalq og‘zaki ijodi degan yangi ilmiy yo‘nalishni boshlab berdi; yozma adabiyotning og‘zaki ijodga, og‘zaki ijodning yozma adabiyotga ta’siri masalasining nazariy muammolarini hal qilib berdi. Ikkinchi tomondan esa, olim xalq og‘zaki ijodi bisotidan barakali fayz topgan N. “X.”si tarkibidagi dostonlar syujetining og‘zaki ijoddagi ildizlarini aniqlashga muvaffaq bo‘ldi, asarlarning keng xalq ommasi orasiga nechog‘lik singib ketganini ilk bor ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qildi. “X.” dostonlarining qayta yaratilgan variantlari, XVI asr yozuvchisi Umar Boqiy tomonidan qayta ijod etgan nasriy nusxalari ancha batafsil, badiiy mahorat, an’ana va o‘ziga xoslik jihatidan tekshirilib, nazariy umumlashtirildi. Olim Umar Boqiy qissalarining N. dostonlari syujetiga qay darajada yaqinligini, ayni paytda farqli jihatlarini zukkolik bilan aniqlay olgan. Ana shu asarida muallif noshir va adib Mir Maxdum tomonidan yaratilgan “Nasri Xamsayi benazir” haqida ma’lumot berdi. M.N.M.ning N. ijodiga bag‘ishlangan so‘nggi asari “So‘z san’atining gultoji” (1992) monografiyasidir. Bu asar keng ilm-adab ahliga “X.”ning besh dostoni haqida yaxlit, lo‘nda ilm-ma’rifat beradigan asar sifatida o‘ziga xos qimmatga egadir.

Ayni paytda olim Nizomiy “X.”sining o‘zbek xalqi ma’naviyati xazinasiga kirib kelishi, “Panj ganj” dostonlarining Qutb, Haydar Xorazmiy, Ogahiylar tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilinishi, shoir merosining N.dan tortib ko‘pgina ijodkorlarga fayz bag‘ishlagani haqida ixcham, ammo zarur ma’lumot bergan. O‘sha yillariyoq ustoz N. va Nizomiy muammosini, shoir dostonlarining o‘zbekcha tarjimalarini qiyosiy-tipologik yo‘nalishda o‘rganish lozimligini ta’kidlagan edi. 2020-y. “Mumtoz so‘z” nashriyoti M.N.M.

arxivining katalogini ommalashtirdi. Kitobdagi dalillarga qaraganda, olim yana fors-tojik adabiyoti namoyandalarining hayoti hamda merosi haqida o‘nlab ilmiy maqolalar, “Abdurahmon Jomiy”, “Navoiy va Jomiy” risolalarini yozgan.

Ad.: *Маллаев Н. Навоий ижодининг халқчил негизи. – Т., 1973; Маллаев Н. Сўз санъатининг гултожи. – Т., 1992.*

H.H., S.O‘.

MALLOH – qayiqchi, kemachi. N. asarlari matnida uchraydi. “F.Sh.” dostoni syujetiga ko‘ra, dengizning janubiy tarafidan kuchli sovuq kuchli va qattiq shamol turadi, shunda katta tajribaga ega bo‘lgan keksa M.lar bu holdan qattiq xavotirga tushishadi, har yuz yilda bunday, kuchli shamol bo‘lishini, bu safarning oqibati xayrsiz bo‘lishini aytadi:

Qari mallohlar mundoq baloni
Ko‘rub arz ettilar yirtib yaqoni.

Ki, har yuz yilda bu yel bir qilur sayr,
Va lekin yo‘qturur bu sayr aro xayr.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик. 6 жилд. – Т., 2011.*

B.R.

MALLU I – “S.S.” dostonidagi salbiy personaj, Hindistondagi Junpur shahri hokimining noibi. Ushbu obraz bilan bog‘liq epizodlar “S.S.”ning XXVII bobida hikoya qilingan. Ma’lumki, ushbu bob to‘rtinchi iqlim yo‘lidan keltirilgan musofir hikoyasidan iborat bo‘lib, hikoya qahramoni Mas’uddir. Junpur hokimi Jaypur va uning noibi M. o‘ta zolim kishilar edi. Shu sababli odamlar ular ustidan Hindiston shohi Junaga shikoyat va arz b-n keladilar. Shoh Jaypurni hokimlikdan bo‘shatish va o‘rniga Mas’udni tayinlash haqida farmon chiqaradi. Lekin, hali bu farmon e’lon qilinmasidan oldin Jaypur va uning noibi M. farmon mazmunidan xabar topadilar. M. Jaypurga hiyla o‘rgatadi va ular shu yo‘l bilan Mas’udni ushlab, bir chohga tashlaydilar, odamlarga esa avval uni yo‘qoldi, deb aytadilar, so‘ngra unga ta’ziya tutadilar. Mas’udni qo‘riqlashga tayinlangan kishining qizi uning ozod bo‘lishiga yordam beradi. Oxir-oqibatda M. va Jaypurning kirdikorlari fosh bo‘lib, shoh ularni o‘limga hukm qiladi. N. o‘zining bir qator asarlarida bo‘lgani singari bu hikoyatda ham adolat, ezgulikni madh etadi, zulmni qoralaydi, zolimlarni fosh qiladi. Dostondagi M. obrazi ham ana shu maqsadga bo‘ysundirilgan va hiylakor, zolim amaldorlarning timsoli bo‘lib xizmat qiladi. N. uni shunday ta’riflaydi:

Bor edi noibi, oti Mallu,
Tab’ida zulm-u kiyna sori g‘ulu.

Adolatning tantana qilishi, M. va Jaypurning jazolanishi quyidagi misralarda o‘z aksini topgan:

Bo‘yla holatda hukm topdi sudur
Kim, topib qatl Mallu-vu Jaypur.

Bo‘ldi yer qonlari bila gulfom,
Ko‘rki, gul faslidur ne xush ayyom.

Ad.: *Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Ўзбек адабиёти тарихи. 5 томлик, 2-том. – Т., 1972; Жалолов Т. “Хамса” талқинлари”. – Т., 1968.*

Q.E.

MALLU II (Mallu ibn Mabok) – N.ning “S.I.” dostonidagi personaj, Kashmir hukmdori. Iskandar Kashmirga yurish qilganda Kashmir hukmdori ikki tog‘ orasidagi yo‘lni ganch va toshdan devor bilan to‘sib, temirdan darvoza qilib mustahkamlaydi. Shundan so‘ng, u yerga ikki ming afsungarni jamlaydi. Ular sehr-jodu b-n bu darbandni qo‘riqlashlari lozim edi. Bu afsungarlarning jodusi tufayli ushbu istehkomga hech kim ming qari masofadan yaqin kela olmaydi, yaqin kelgan kishining oyog‘i sustlashib,

harakatlanish qobiliyatidan mahrum bo‘ladi. Bu haqda Iskandarga xabar beradilar. Mazkur yurishda besh yuzta hakim Iskandarga yo‘ldoshlik qilar edi. Ulardan o‘ntasi kecha-kunduz Iskandar yonidan jilmas edilar. Iskandar o‘z hakimlariga M.ning afsungarlarining sehr-jodusini bartaraf qilishni buyuradi va ular bu ishning uddasidan chiqadilar. M. qochib, bir mustahkam qo‘rg‘onga yashirinadi va yana sehr-jodu yordamida qarshilik ko‘rsatishda davom etadi. Endi u butun Kashmirni afsun bilan o‘t va yeldan mahrum etadi. Iskandarning donishmandlari bu afsunni ham yo‘qqa chiqaradi. Shundan so‘ng, M.ning Iskandar oldiga kelib taslim bo‘lishdan boshqa iloji qolmaydi. U bilan birga o‘g‘li Feruz va qizi Mehrnoz ham keladilar. M. Iskandardan o‘zini afv etishini so‘raydi va Iskandar uning gunohlarini kechiradi. Lekin M. shu asnoda vafot etadi. Iskandar M.ning o‘g‘li Feruzni otasi o‘rniga Kashmir hukmdori etib tayinlab, uning singlisi Mehrnozni o‘z nikohiga oladi. M. izzat-hurmat bilan ota-bobosi yotgan qabristonga dafn etiladi.

Dostondagi M. b-n bog‘liq epizodlar N.ning ilg‘or dunyoqarashini ko‘rsatish bilan ham ahamiyatlidir. Muallif hikmat va donishmandlikni sehr-jodudan ustun qo‘yadi va shunday yozadi:

Ne qilg‘ay necha jo‘giyi sehrsoz,
Biri muhraduzd-u biri huqqaboz.

Ki hikmat eli oni daf’ etmagay,
Ilaydin ne qilg‘onlari ketmagay.

Mazkur bobda N. “S.I.” dostonini yaratishda Iskandar obrazi talqinida boshqa ayrim hukmdorlar b-n bog‘liq tarixiy materialdan foydalanganligidan, jumladan, Sohibqiron Amir Temur faoliyatining ayrim epizodlari ham o‘z aksini topganligidan dalolat beradi. Gap shundaki, Mallu tarixiy shaxs bo‘lgan, lekin u Iskandar (Aleksandr Makedonskiy) zamonida emas, Sohibqiron bilan bir davrda yashagan. Amir Temur Hindistonga yurish qilganda Mallu Hindiston hukmdori Sulton Mahmudning lashkarboshisi sifatida u bilan jang qilgan va yengilgan. Bu voqealar Sharafiddin Ali Yazdiy va Nizomiddin Shomiy asarlarida bayon etilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Ўзбек адабиёти тарихи. 5 жилдлик, 2-жилд – Т., 1977; Низомиддин Шомий. “Зафарнома”. – Т., 1996; Шарафутдин Али Яздий. “Зафарнома”. – Т., 2002.*

Q.E.

MALIK BOZORI – Hirot shahridagi mashhur bozor. Kurd maliklarining hukmdorligi davrida paydo bo‘lgani uchun shunday atalgan. U shahar markazida, Chorsu yaqinida joylashgan bo‘lib, katta maydonni egallagan. Bozor hududida turli mollar va mahsulotlarni sotishga moslashgan timlar – bir necha rastalarni o‘z ichiga olgan usti yopiq, eshik yoki darvozaga ega bo‘lgan savdo binolari hamda timchalar, do‘konlar joylashgan.

Mazkur bozorda N.ga qarashli tim va timchalar, do‘konlar bo‘lgan. Jumladan, taqiyafurushlar timi N.ning mulki bo‘lgan. Bu timni N. “V.” asarida qisqacha tasvirlagan: “Shaharda Malik bozori ichida toqiyafurushlar timig‘adur va imorati ikki oshyondur va bozor sori ikki darbandi bor va har darbandida bir darvoza va bir ayvon mavjuddir”. N.ning M.B.dagi timcha va do‘konlarining aksari ana shu taqiyafurushlar timi atrofida joylashgan edi. Jumladan, shu timning qatorida yonma-yon beshta do‘kon bo‘lgan. Bundan tashqari, ushbu bozorning g‘arbiy qismida bir po‘stinfurushlik do‘koni, bir namatfurushlik do‘koni ham N.ga qarashli bo‘lib, har ikkisi ham boloxonalik, ya’ni ikki qavatli edi.

Bu aytib o‘tilgan tim, timcha va do‘konlarni N. 1481-y.da vaqf qilgan va buni “V.” asarida qayd etgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Вақфия. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Зайниддин Восифий. Бадоеъ ул вақоеъ. – Т., 1979; Бабахаджаев М. Герат эпохи Алишера Навои. – Т., 1969.*

Q.E.

“MALIK UL-KALOM” – “so‘z sultoni”. Bu rasmiy unvon bo‘lmay, o‘tmishda yorqin iste’dodi, yuksak mahorati, badiiy barkamol asarlari bilan shuhrat qozongan va adabiyot olamida baland mavqega, katta obro‘-e’tiborga sazovor bo‘lgan shoir-u adiblarga berilgan faxriy unvon. “M.N.” asarining “Mavlono Abdullo zikrida Firdavsiy “Malik ul-kalom” deb ulug‘langan.

N.shunos Y.Is’hoqov “Alisher Navoiy bu iborani “Majolis un-nafois”da ikki ijodkorga nisbatan qo‘llagan: biri mavlono Lutfiy, ikkinchisi, mavlono Sakkokiy”, deb ta’kidlagan. N. ustozi Mavlono Lutfiyni turkiy tildagi sermahsul ijodini nazarda tutib, shu unvonga loyiq ko‘rgan va “M.N.” tazkirasida “Mavlono Lutfiy (alayhirrahma) – o‘z zamonining malik ul-kalomi erdi. Forsiy va turkiyda naziri yo‘q erdi, ammo turkiyda shuhrati ko‘prak erdi...” deb yozgan bo‘lsa, “H.P.M.” asarida esa ustozi Pahlavon Muhammad b-n Mashhad shahrida bo‘lgan muloqot tasvirida Lutfiyni shu ulug‘ unvon bilan: “Faqir ayttimkim: – Mavlono Lutfiy holo musallamdurlar va bu qavmning ustodi va malik ul-kalomidir”, deb e’tirof etgan. Malik Qumiy ham shu nom bilan mashhur bo‘lgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ҳолоти Паҳлавон Муҳаммад. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Ҳакимов М. Шарқ манбашунослиги луғати. – Т., 2013; Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т., 2014.*

B.R.

MALOYIKA – (ar. Malak – farishtaning ko‘pligi) Islom ta’limotida Alloh taoloning nurdan yaratgan, gunoh qilmaydigan va hamisha Allohga itoatda bo‘ladigan yaratig‘i. Ularga iymon keltirish, iymon shartlaridan biri bo‘lib, har bir mo‘minga farzdir. Chunki Qur’oni Karimda ular haqida xabar berilgan. N. “S.M.” asarida aynan Allohga iymon keltirgandan keyin farishtalarga iymon keltirishning zarurligini ta’kidlagan.

Xudoyedur yaratkan bud-u nobud
Ki, andin o‘zga yo‘qtur Tengri mavjud.

Yana bilmak maloyikniki, Xoliq,
Yaratibdur ibodatqa muvofiq.

N. “H.A.” dostonida Allohga iymon keltirgandan keyin M.larga ham iymon keltirishning zarurligini uqtirib, ularga xos bo‘lgan ko‘rinish va hayot tarzini ham aytib beradi:

Oltidin ikkinchi maloyikni bil,
Borchag‘a tasdiqi vujud aylagil.

Bilkim erur zoyiri aflok alar,
Nafsning oloyishidin pok alar,

Har bir uli-ajniha tovus o‘lub,
Donayi tasbih anga ma’nus o‘lub.

Tobi muhabbat chog‘i ul ajniha,
O‘tlari tug‘yoni uchun mirvaha.

M.larga iymon keltirishning o‘ziga xos hikmatlari bor. M.larga iymon keltirgan odam ularning borligiga, ma’lum vazifalarni bajarishlari, dunyoda ularning turli vazifalarga mas’ul ekanliklariga ham ishonadi. N. farishtalarning go‘zalliklarini e’tiborga olib, yorni “malaksiymo”, “malakvash” so‘zlari bilan sifatlaydi.

Kimki oning bir malaksiymo parivash yori bor,
Odame bo‘lsa, pari birla malakdin ori bor.

N. bir qit’asida farishtasifat insonlarni “salomat ahli”, shaytonsifatlarni “malomat ahli” deb ta’riflaydi:

Malak atbo’idururlar ul xayl,
Kim alar keldi salomat ahli.
Men-u shaytong‘a tatbig‘kim, erur
Mendek ul dog‘i malomat ahli.

N. “T.A.H.”da M.lar bajaradigan ba’zi vazifalaridan xabar beradi: “...va iblis ko‘p toat qilg‘ondin so‘ng maloika martabasig‘a yetib erdi. Chun Tangri taolo amridin bo‘yun to‘lg‘odi,

shaqovat va la’nati jovid tavqi aning bo‘ynig‘a tushtikim...”, “...iki malakni iki qarg‘a surati bila Qobil qoshig‘a yibordikim, biri-biri bila urushub, biri yana birin o‘lturdi va qotil qarg‘a yerni tirnab, minqori bila qozib, maqtulni dafn qildi”.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик. 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик. 8-жилд. – Т., 2011.*

S.R.

MALOMATIYLIK – IX asrning ikkinchi yarmida Xurosonda, keyin Nishopurda paydo bo‘lib, keng tarqalgan o‘ziga xos maslak oqimi. M.ning asoschilaridan deb e’tirof etilgan Hamdun Qassor to‘g‘risida N. “Hamdun Qassor – avvalg‘i tabaqadandur. Kunniyati Abu Solih. Malomatiyaning shayxi va imomidur. Nishopurda malomat tariqin ul nashr qildi”, – deydi.

Abu Husayn Nuriy barcha mutasavviflar o‘n ikki firqaga ajralishi, ularning ikkitasi mardut va botil, qolgan o‘ntasi maqbul ekanligini so‘zlab, malomatiylikni “maqbul va mo‘tabar” tariqatlar qatoriga qo‘shadi. M. istilohi arabcha “lavm” o‘zagidan paydo bo‘lgan qiynash, aziyat yetkazish mazmunidagi “malomat”dan yaralgan.

XI asrda yashab o‘tgan ulkan olim Abdurahmon Sulamiyning “Malomatiylik risolasi” M.ning tarixi, mohiyati, mafkura va asosiy haqiqatlaridan ma’lumot beruvchi yagona mo‘tabar asardir. Uni tadqiq qilib, nashr ettirgan olim Abul A’lo Afifiyga ko‘ra, “malomat – nafsni riyozat yo‘li bilan kamolga yetkazish, kibr va riyo kirlaridan tozalash metodlaridan biridir”.

M. ikki muhim asosga tayangan: birinchisi nafsdan yuzaga chiqadigan har bir ish, harakat va tushunchadan o‘zni qutqazish; ikkinchisi esa, ma’naviy hayotdagi tug‘iladigan hollar, ayniqsa, qulning Rabbi b-n bog‘liq kayfiyatlarni yashirish.

M.ning Alloh nazdidagi nufuzlari esa hazrat Muhammad Mustafo (s.a.v.)nikiga o‘xshashdir. Chunki u Haqqa yaqinlik izzatiga yetganida botin dunyosining tashqi qiyofasiga hech ta’siri sezilmagan. Xalq yoniga qaytganda aynan o‘shalarga o‘xshash ahvolda so‘zlashganki, qullikning kamoli ham mana shudir. Shu ma’noda malomiylar tangri eranlarining eng oldingi safida turuvchilar bo‘lishgan. Ular chinakam komillik martabasini egallab, dunyoga tahqir nazari b-n qaramaslik, odamlarni tarkidunyochilikka undamaslik bilan hurmat-e’tiborlarini yanada yuksaltirishgan. Shuning u-n XII asrdan e’tiboran dunyoga kelgan o‘nga yaqin tariqat va tariqat tarmoqlari M.dan quvvat olib yoki uning ta’sirida yaratilgandir. Najmiddin Kubro asos solgan kubraviylik va Abdurahmon Jomiy, N. mansub bo‘lgan naqshbandiya tariqatida zikri xufiya usulining tanlanishi bevosita malomiylik b-n aloqadorligi ilmda isbotlangan.

Ad.: *Абдулкарим Қушайрий. Рисоласи Қушайрий. – Истанбул, 1991; Ҳужвирий. Кашф ул-маҳжуб (ҳақиқат илми). – Истанбул, 1996; Сухровардий. Авориф ул-маориф (Тасаввуф асослари). – Истанбул, 1990; Умар Ризо Дўғрул. Ислом тасаввуфида илк маломат ва Суламий рисоласининг таржимаси. – Истанбул, 1950; Афифий А. Ислом тушунчасига доир мақолалар. – Истанбул, 2011; Гулпинорли А. Маломийлик ва маломийлар. – Истанбул, 1931; Ҳаққул И. Аҳмад Яссавий. – Т., 2001.*

I.H.

MALOMATIYLIK VA NAVOIY – turkiy xalqlar adabiyotida M. fikri, holot va haqiqatlarning yuzaga chiqishi taxminan XI asrning oxirlariga to‘g‘ri keladi. Malomatiyshunos A. Gulpinorlining yozishicha, “Tasavvufning ruhga sokinlik bag‘ishlaydigan talqinlari Xuroson ijtimoiy-siyosiy muhitida malomiylik inkishofiga qulay bir zamin hozirlagan edi”. Shuning uchun ham M. “tasavvufdagi o‘ziga xos mayl va nuqtayi nazarni tamsil etadi”. Ayni paytda so‘fiylikdagi bir qator zohiriy unsur, ko‘nikma va urinishlar malomat ahli tomonidan umuman inkor qilingan.

Musulmon dunyosida insonning shaxsiy nuqsoni, aybi, yomonlik, ojizlik va gunohlarini

bilish, ularga mas’ul bo‘la olish hamda qarshi kurashishni o‘rgatishda M.ka tenglasha oladigan maslak yoki ta’limot yo‘q desa, xato bo‘lmaydi.

M. insonshunoslikda favqulodda keng va teran yo‘l ochgani bois ilk davr malomat ahlining fikr va hayot tajribalari N.dunyoqarashiga sezilarli zaylda ta’sir o‘tkazgan.

Chinakam M. – javonmard, haqiqiy javonmard esa M. sohibi bo‘lganidan N. malomat holi va talablariga doimiy bir ishonch bilan qaragan. Futuvvat bilan M.ni o‘zaro yaqinlashtirib, hatto ayrim hollarda birlashtiruvchi xislat va fazilatlar ancha, ammo har ikki amaliy maslak u-n eng muhim vazifa riyodan forig‘ bo‘lib, ixlosga sodiq qolishdir.

Riyo – asl qiyofani yashirib, boshqa bir qiyofada ko‘rinish. Riyo – yomonlik, qalloblik, ikkiyuzlamachilikni qoralab, yaxshilik va samimiyatni ularga qurbon qilish. Riyo – makr, hiyla va nayrangbozlikni “hunar” darajasiga yetkazish, shaytonning eng faol askarlari safiga kirish vakolatidir.

Shuning u-n malomatiylar riyoni qism va turlarga ajratib tadqiq etishgan. M-n., amaldagi, ya’ni ish va faoliyatdagi riyo. Holdagi riyo. Ilm va iddaodagi riyo. Bularning ikkinchisi, birinchisidan, keyingisi oldingisidan yomon va tahlikaliroq ekanligi dalillar bilan isbotlanib ko‘rsatilgan.

M. ahlining nuqtayi nazari bo‘yicha, haqiqiy ilm inson qalbiga Alloh joylashtirgan bir omonatdir, uni ko‘z-ko‘z qilish, ilm targ‘ibi va tashviqini manfaat yoki martaba vositasiga aylantirish, omonat berilgan sirni sotishday gap. Qul holini yashirishga mas’ul bo‘lganidek, ilmini ham pinhon tutishga mas’uldir.

Nafsning o‘ziga tegishli bo‘lmagan biror narsani o‘ziga nisbat berishiga iddao deyilgan. Nafsshunoslarning qayd qilishicha, iddao faqat amallarda, hollarda, ilm va karomatlarda mavjud bo‘ladi. Alloh b-n inson orasidagi eng qalin parda esa ana shu iddaodir. Iddao nafsning elchisi va gumashtasi sifatida odamni tez hamda oson yo‘ldan ozdiradi.

M. sohiblarining bunday fikr-qarashlari, ayniqsa, “riyo nazariyasi” N.ni nihoyatda jiddiy qiziqtirgan. Ulug‘ shoir “N.Sh.” devonidagi qit’alardan birida bunday deydi:

Fosiq men-u kofiri nih oni,
Ka’ba safari erur menga hayf.
O‘zni buki yaxshi ko‘zguzurmen,
Billahki, menga kaliso hayf.

O‘zidagi biror bir yaxshi, go‘zal va ibratli xislat, fazilat, xulqiy holatlarni hech oshkor qilmay, yomon, chirkin va ruhni shikastlaydigan noqisliklarini ochiq so‘zlash M.da belgilangan qoidalarning asosiylaridan sanalgan. Abdurahmon Sulamiyning “Risolayi malomatiya”si b-n tanishgan kishi, uning “malomatiy, botinida iddaosi, zohirida qalloblik va riyokorligi yo‘q shaxsdir” degan so‘zlariga to‘la ishonadi.

Xilqatimni devlar birla agar qilsam qiyos,
Lof bo‘lg‘ay, gar desamkim, ul hamondur,
bu hamon.
Toatimni gabrlar fisqiga yondashtursalar,
Ne bu ondin yaxshiroq bo‘lg‘ay,
ne ul mundin yomon.

Maz.: O‘zimning borlig‘im. Botiniy tabiatimni devlar bilan qiyoslab, bir-biridan ular aslo farqlanmaydi desam, albatta, lof bo‘ladi. Toat-ibodatimni majusiylar fisqiga solishtirsalar, bu undan yaxshi bo‘lmagani kabi, u ham bundan yomon bo‘lmaydi. Zero, mening toatkorligimda ibratga loyiq hech nima yo‘qdir, deydi N.day ulug‘ zot.

Shoir:

Bashar xayli anga majbul erurlar
Ki bo‘lg‘ay har biri o‘z ollida mahbub,

Shaxsiy holat va mayllarini idrok aylashga urinmay o‘zini sevish dunyo ahli uchun tug‘ma ko‘nikma deb boshlanadigan qit’asini shunday so‘zlar bilan tugallaydi:

Hunar ahli ani degilki bo‘lg‘ay.
O‘zini qilsa o‘z ollida ma’yub.

Chu o‘z aybig‘a voqif bo‘ldi aybin,
Nachuk qilg‘ay hunar o‘rnig‘a mahsub.

Hunar so‘zi qobiliyat, fazilat, donolik mazmunlarini ham anglatadi. Donolik va fazilatga sodiqlikning ilk sharti esa o‘z aybini bilish, bilganda ham iqror darajasiga yetkazish. Ana shunda chalg‘ish va adashuv chetda qolib ayb yo nuqson fazilat sanalmaydi. Aslida dunyoga va “bashar xayli”ga xolis qarash xuddi shu joydan boshlanadi. Shuning u-n N. bu ogohlik va xoislikni “L.T.” dostonida komillikka tomon odim tashlashning ilk sharti o‘laroq ta’kidlagan:

Noqis uldurkim o‘zin komil degay,
Komil ulkim nuqsin isbot aylagay.
O‘z kamolidin demas ahli kamol,
Ahli nuqson ichradur bu qil-u qol...

N. she’riyatiga qayta-qayta murojaat qilib, kengroq mushohada yuritgan kishi dindan javonmardlikka, futuvvat maydonlaridan tasavvufga, tasavvuf taassurotlarini yanada kuchaytirib M.ka alohida ishonch b-n qaraganligini bilish uncha qiyin emas. Bu o‘rinda aniq bir dalil sifatida malomat mazmuni va kayfiyatidagi she’rlarning shoirning so‘nggi devoni “F.K.”dan ko‘proq joy egallaganini aytish joizdir. Ulardan birida o‘qiymiz:

Nomayi a’molim ul yanglig‘ qarodur jurmdin
Kim, nadomat ashkidin ani oritmoq o‘lmag‘ay.

Balki gar Bahri muhit ichra solib, yillar yusang,
Ul qaro bo‘lg‘ay sarosar, lek bu oq o‘lmag‘ay.

Ma’lumki, nomayi a’mol – tiriklikda qilingan yaxshi va yomon, gunoh va savob ishlar qayd etiladigan daftar. “Ayb va gunohlarning yozuvidan bu daftar shunchalik qoraydiki, - deydi shoir, - nadomat hamda pushaymonlikdan to‘kilgan ko‘z yoshlar bilan uni oqartirishning hech iloji yo‘q. Cheksiz, chegarasiz dengizga solib yuvilganda ham dengiz suvi butkul qorayadi, lekin u daftar tozalik yuzini ko‘rmaydi”. Nomayi a’mol shoirga umumiyroq tuyulgan bo‘lsa kerakki, nomayi ma’siyat – gunoh daftarini ham esdan chiqarmaydi. Bu daftardagi bitiklar shunchalik qoraki, “chashmayi xurshid” – quyosh chillasida yuvilsa ham odamlar nazarida yilt etgan yorug‘lik ko‘rinmaydi. Ularning harfini birin-birin ajratib osmon yuziga sochsa, ularning, hatto har bir nuqtasi bir yulduzni yorug‘likdan mahrum qiladi:

Nomayi ma’siyatim chashmayi xurshid ichra
Yusalar, ko‘rmagay el o‘zga yorug‘luq yuzini.
Harfini bir-bir etib solsa falak javfi aro,
Shibhigun qilg‘ay har nuqtasi bir yulduzini.

Bu gaplarni bugungi o‘quvchi mubolag‘a o‘rnida qabul etishi mumkin. Lekin riyoga N. nigohi bilan qarab, unga qarshi turishga urinilsa, o‘zini o‘zi ayovsiz fosh etuvchi mana bu so‘zlar kitobiylikdan mutlaqo yiroqligiga to‘la ishonadi.

Qaysi taqvo xirmonin fisq o‘tidin
kuydurmadim,
Qaysi tavba naxlini nafs ilgidin
sindurmadim.

Turmay oqsa ko‘zdin ashkim ne adabkim,
tavbadin
Garchi ko‘p so‘z dedim, ammo
bir so‘zumga turmadim.

Ruhan va ma’nan kuchga to‘lgandagina, shoir ana shunday ochiladi, o‘zi to‘g‘risidagi eng haq, eng rost so‘zni o‘zi aytish holiga yetadi.

Malomatiylar hayotlari, maqsad va holatlari hech birovnikiga o‘xshamasligi, ya’ni o‘ziga xos bo‘lishi va uni Allohdan boshqasi bilmasligini istashgan. Ular biror ish qilsalar g‘arazdan xoli, iddaodan butunlay yiroq, shovqin-suronsiz chin ixlos bilan amalga oshirishgan. Jamiyatni riyo, aldov, kibr, havoyilik, moumonlikka o‘xshash yuzlab balolardan muhofaza qilishda Malomatiylarning sa’y-harakati va qat’iyati beqiyos bo‘lgan.

Ijodiyotining ayrim sahifalarida N. o‘zini “malomat bulbuli” (“Vafo bo‘stonining dostonsaroyi, malomat bulbuli, ya’ni Navoiy”; “Charx mehnat toshidin to ravzan ochti har taraf, men malomat bulbuli, go‘yo qafasdir maskanim”), ba’zi bir

baytlarida “arbobi malomat” va “ahli malomat”ga mansubligi (“Yuz ochma, garchi tutqay ko‘rsa ma’zur, meni ishqingda arbobi malomat”; “Mug‘ ko‘yi azmidin meni man’ etma, ey rafiq, Bu yo‘l erur chu ahli malomatqa borg‘uluq”)ni ta’kidlaydi.

Shoir M. yo‘li va vodiysidagi qiyinchilik, xilma-xil mashaqqatlardan so‘z yuritganda “malomat toshi”, “sangi malomat”, “malomat o‘qlari”, “malomat dashti”, “malomat tog‘i”, “malomat bahri”, “malomat dayri”, “malomat bodasi” singari iboralarni ancha keng qo‘llaydi.

M. maslagining imtiyoz va foydasi ahli malomat o‘rtasida keng tarqalgan “malomatda salomat bo‘lur” degan gapda ifodasini topgan. Shu fikr “F.K.”da mana bu tarzda ifodalangan:

Manga solim o‘l, deb duo qilmangizkim,
Beganmas salomatni ahli malomat.

N. M.lik maslagiga ishonchi “D.F.”dagi mana bu baytda yanada aniq va yorqinroq aks ettirilgan:

Nest g‘amam az malomate, ki kunad shayx,
G‘am naxo‘rand az malomat ahli malomat.

Tarj.: Shayxning malomatidan men hech qayg‘urmayman, chunki malomat ahli malomatdan g‘am chekmaydilar.

Ushbu baytni Qur’oni Karimdagi (Moida: 54-oyat) Xudo do‘stlari “Malomat qiluvchining malomatidan qo‘rqmaydilar” so‘zlarining she’riy tafsiri desa ham bo‘ladi.

“Malomiy bir karomat zohir etishni istamaganidek, - deydi Afifiy, - zikr, raqsi sano, vajd, faryod kabi holiga zarar yetkazib, uni ro‘yobga chiqaradigan hamma narsani yomon hisoblagan”. Jumladan, diqqatini o‘ziga qaratadigan yig‘lashni ham. Chunki yig‘i hissiyot va shaxsiy baxtsizliklardan tug‘ilgani bois ko‘pincha kuchsizlik holini ifodalaydi.

Xullas, qalbi Shaxs erki va butunligi dardi bilan o‘rtangan, Alloh va odam munosabatini ham hayot harakati ichida idrok qilgan N. zamon va ahli zamondan yetgan javr-u jafo va ranjlarni sabr bilan yengish, keraksiz da’vo, boqiy haqiqatlarga butunlay zid iddaolardan qutilishda M.likka tayanganini quyidagi bayt ham tasdiqlab turibdi:

Ka’ba istarsen mug‘ilon cheksa til
qayg‘urmag‘il,
Bemalomat topmadi kimsa salomat,
ey ko‘ngul.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Хожа Аҳмад Яссавий. Девони ҳикмат. – Т., 2006; Абдулкарим Қушайрий. Рисолаи Қушайрий. – Истанбул, 1991; Абу Ҳафс Шаҳобиддин Умар Сухравардий. Авориф ул-маорий. (Тасаввуф асослари). – Истанбул, 1990; Ҳужвирий. Кашф ул-маҳжуб (ҳақиқат илми). – Истанбул, 1996; Умар Ризо Дўғрул. Ислом тасаввуфида илк маломат ва Суламий рисоласи таржимаси. – Истанбул, 1950.*

I.H.

MAMADOV Homidjon – n.shunos olim, f.f.n. 1929-y. Tojikistonda tug‘ilgan, o‘rta maktab va Konibodom erlar bilim yurtida ta’lim olib, 1948-y.da O‘rta Osiyo Davlat universitetining o‘zbek filologiyasi fakultetiga o‘qishga kiradi. 1953-y.da universitetni tugatgach, avvaliga o‘rta maktabda o‘qituvchi bo‘lib, 1953-y.dan boshlab esa Leninobod (hozirgi Xo‘jand) davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida laborant, assistent, 1960–1971-yy.da katta o‘qituvchi sifatida faoliyat ko‘rsatadi. U 1969–1971-yy. davomida prof. A.Rustamov ilmiy rahbarligi ostida “Navoiy badiiy prozasining leksik-stilistik xususiyatlari” mavzuida nomzodlik dissertatsiyasi ustida ish olib boradi va 1969-y. dekabrida uni muvaffaqiyat bilan himoya qiladi. M.H. 1971-y.dan institut O‘zbek tili kafedrasi dotsenti, 1983-y.dan esa shu kafedraning mudiri lavozim-

larida ishlagan. M.H. ilmiy izlanishlari markazida N. badiiy prozasining leksik-stilistik xususiyatlarini kuzatish va tahlil etish masalasi turadi – olim e'lon qilgan tadqiqotlarning aksariyatida xuddi shu muhim mavzu b-n aloqador masalalar yoritiladi. "Navoiy prozasidagi qofiyadosh so'zlar" (1967), "Navoiy prozaik asarlarining leksik xususiyatlari" (1967), "Navoiy prozasining ba'zi leksik xususiyatlari haqida" (1968), "Navoiy asarlaridagi leksik birliklar haqida" (1968), "Navoiyning o'zakdosh so'zlardan foydalanish san'ati" (1969), "Mahbub ul-qulub"da so'zlarning ko'chma ma'noda ishlatilishi" (1970), "Navoiyning ma'nodosh so'zlardan foydalanish san'ati" (1970), "Mahbub ul-qulub"dagi ba'zi san'atlar" (1983), "Alisher Navoiyning zid ma'noli so'zlardan foydalanishi ("Mahbub ul-qulub" asosida)" kabi maqola va axborotlari Xo'jand davlat pedagogika instituti ilmiy ishlarida, "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali sahifalarida, shuningdek, "Adabiy meros" to'plamida nashr etilgan. Olimning bu va boshqa ishlarida ulug' shoir nasrining til xususiyatlari va badiiyati, so'z tanlashdagi betakror mahorati bilimdonlik bilan kuzatiladi, aniq misollarda tahlil etiladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик. 9-жилд. – Т., 2011; Мамадов Х. Лексико-стилистические особенности художественной прозы Алишер Навои: Автореф. дисс. канд. фил. наук. – Т., 1969.*

A.A., E.U.

"MANGA YETSA MING ZULM..."

Manga yetsa ming zulm neshi falondin,
Ilojida holimg'a hayron qolurmen.
Jafo qilg'oli qo'ysa vayronima yuz,
Agar qavlay olmon, qocha xud olurmen.

Dono va ma'rifatli odamlarning tabiati uchun latiflik, yumshoqlik xosdir. Buni ta'b zarofati desa ham bo'ladi. Mana shu zariflik ozorni ozor bilan, qahrni qahr, zulmkorlikni zulm b-n yengishga ko'pincha imkon bermaydi. Chunki ular johillikka qarshi jahlga minishni jaholat, nodonga barobar turishni nodonlik deb anglaydilar. "Dononing ahmoqlar davrasida sukut etishga majbur bo'lishi ajablanarli emasdir, chunki hamisha nog'ora ovozi tanbur ovozini eshittirmay qo'yadi", – degan ekanlar Shayx Sa'diy.

Mana falon bir nokas. Bu chayonsifat kimsaning zulm neshi shoir bag'riga tinimsiz sanchilayotir. Lekin u ilojida o'z holig'a o'zi hayron. N. dagi qalb oliyjanobligi va ruhiy noziklik ayni shu hayronlikda. Buni passivlik deb bilmaslik kerak. Shoir chayondan hazar qilganday o'sha yovuzdan o'zini chetga oladi. Va ittifoqo: "Jafo qilg'ali" kulbayi vayronamga kelsa nima qilaman?" – degan xayol tug'iladi. Qarangki, o'shanda ham u battolni quvlay olishiga uning ko'zi yetmaydi.

Agar qovlay olmon, qocha xud olurmen, –

deya go'yo ko'ngulga taskin beradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик. 4-жилд. – Т., 2011; Ҳаққул И. Касби камол ўзни танишдир. – Т., 2021.*

I.H.

MANGU QOON (vafoti, 1257) – Chingizxonning nabirasi. Uning otasi To'lixon Chingizxonning to'rtinchi o'g'li edi. M.Q. amakivachchasi Guyukxon o'limidan so'ng mo'g'ul imperiyasining ulug' xoni sifatida taxtga o'tirgan (1251). Uning hukmdorlik davrida mo'g'ul imperiyasi yanada kengaygan. M.Q. inisi Qo'bilayxon va Xulagularni Sharq va G'arb tomonlardagi mamlakatlarni zabt etish uchun yuborgan. O'zi ham yurishlar qilgan va ana shu vaqtda Chinmochinda vafot etgan (1257).

M.Q. nomi N.ning "S.I." dostoni XVII bobida tilga olingan. Mazkur bobda Doroning Iskandarga qarshi urush qilish maqsadida qo'shin to'plagani hikoya qilinadi, o'z lashkari bilan Doro huzuriga kelgan hukmdorlar sanab o'tiladi:

Xito mulkidin Mangu qoon kibi,
Yana Hind elidin Qaroxon kibi.

Hamul Misrdin Varqau Boshdek,
Dog‘i Dasht elidan Temurtoshdek.

Farangisdek Xovaron mulkidin,
Davoli kibi Shirvon mulkidin.

Tarixiy shaxslar M.Q. va Doro butunlay boshqa-boshqa davrlarda yashaganlar, shunga ko‘ra, M.Q.ning Doro va Iskandar o‘rtasidagi urushda qatnashishi mumkin emas. N. bu o‘rinda badiiy to‘qimadan foydalangan.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Стэнли Лэн-Пуль. Мусульманские династии. – М., 2004; Абдулғозий. Шажарайи турк. – Т., 1992; Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи. – Т.,1994.*

Q.E.

MANZUR – N. asarlarida uchraydigan atama. Ma’lumki, N. “M.N.” tazkirasida, shuningdek, boshqa asarlarining ayrim o‘rinlarida turli shoirlar va ularning ijodlariga o‘z munosabatini bildirgan, necha yuzlab baytlar, misralarni keltirgan, ularning badiiyati haqida so‘z yuritgan. Tazkiraning sakkizinchi majlisi to‘lasicha Husayniy devoniga bag‘ishlangan, undagi g‘azallarning birinchi baytlari tahlil qilingan. N. asarlarining mazkur o‘rinlari katta ahamiyatga ega, zero, ular she’r tahlilining o‘ziga xos namunalaridir. Bunda muallif lirik she’riyatning asosiy obrazlaridan biri sevgiliga nisbatan manzur atamasini qo‘llaydi. Husayniyning:

Ayladi la’li tabassum, g‘unchayi xandon emas,
Dog‘ini ko‘nglum qonatti, lolayi no‘mon emas.

baytining badiiyati, unda tashbehlarning mahorat bilan qo‘llanganini ta’kidlar ekan, N. shunday yozadi: “Manzurning labi tabassumini va o‘zini qonag‘on dog‘ini g‘unchayi xandon va lolayi nu’mong‘a tashbeh qilibdur va manisi she’r sonoye’fin “tajohil ul-orif” uslubida xush voqe bo‘lubtur”. Boshqa bir matla’ xususidagi o‘z fikrlarini bayon qilganda ham muallifning shu atamadan foydalanganini ko‘ramiz: “Vaslidin mahrumliq bobida manzurni ko‘rmak muyassar bo‘lmasa, anga nazar tushgan yerni ko‘rmak orzu qilibtur. Bu nodiya ma’nedur:

Bir nafas ul oyni ko‘rmak chun emasdur dastras,
Oni ko‘rgan yerni, vah, borib ko‘royin bir nafas.

Yuqoridagi singari misralarni yana keltirish mumkin.

Shunisi diqqatga sazovorki, N. qo‘llagan bu atama bugungi adabiyotshunoslikda ham iste’molga kirgan va turli maqolalarda adabiyotshunos olimlar undan foydalanmoqdalar.

Bunga o‘xshagan misollar N.ning ilmiy til va uslubning shakllanishi hamda rivojlanishiga qo‘shgan hissasidan dalolat beradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Нусратулло Жумахўжа. “Қаро кўзум...” ғазали тадқиқи. – Т., 2021.*

Q.E.

MANNON UYG‘UR (taxallusi, asl ismi Abdumannon Majidov) – (1897 – Toshkent – 1955) rejissyor, aktyor, dramaturg. O‘zbekiston xalq artisti. O‘zbek milliy akademik drama teatri asoschilaridan. Ilk faoliyatini 1916-y. “Turon” teatr truppasida aktyor sifatida boshlagan. M.U. teatrga butun umrini bag‘ishladi. 1919-y. “Turon” truppasini qayta tiklab, millat ma’naviyatini oshirish u-n xizmat qiladigan nodir asarlarni sahnalashtirish b-n muttasil shug‘ullandi. Xususan, 1918–1920-yy.da Abdulla Avloniyning “Advokatlik osonmi?”, Hamzaning “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari”, “Boy ila xizmatchi”, “Tuhmatchilar jazosi”, Abdulla Qodiriyning “Baxtsiz kuyov”, Fitratning “Abo Muslim”, “Chin sevish” asarlarini sahnaga olib chiqish bilan teatr repertuarini yanada boyitdi. M.U. 30-yy. qatag‘onidan omon qolgan bo‘lsa-da, doimiy nazorat ostida ijodini davom ettiradi. Uning rejissyorlik faoli-

yatida “Alisher Navoiy” dramasi alohida o‘ringa ega. Ulug‘ shoir haqidagi o‘lmas asarni sahnalashtirgani u-n turli qiyinchiliklarga uchrab, so‘roqlar qilindi. U, avvalo, N.ni ideallashtirishda ayblandi. Tanqidiy mulohazalar ostida asar syujetini o‘zgartirishga to‘g‘ri keldi. N.ning Majididdin b-n ziddiyatlari kuchaytirilib, Husayn Boyqaroni irodasizroq, subutsizroq qilib gavdalantirishga majbur bo‘ldi. N.ning xalqparvarlik sifatlariga urg‘u berib, oddiy xalq b-n aloqasi ko‘rsatilgan sahnalarga kengroq o‘rin ajratildi. Spektaklda M.U.ning tarix haqiqatlarini ko‘rsatishdagi, buyuk ajdodlar, jumladan, N. siymosini to‘laqonli ochib berishdagi rejissyorlik mahorati va iste’dodi namoyon bo‘lgan. 1948-y. “Alisher Navoiy” dramasining yangi tahriri namoyish qilindi va katta muvaffaqiyat qozondi. Asar 42 yil mobaynida 760 marta sahnaga qo‘yilib, 350 ming tomoshabinning e’tiborini qozondi. Bu namoyish uchun M.U. va ijrochilar Davlat mukofotiga sazovor bo‘ldilar. Vafotidan so‘ng “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni b-n mukofotlangan.

Ad.: *Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 2-жилд. – Т.: 2003.*

Z.R.

MANNONOV Abdurahim Mutalovich – sharqshunos-filolog-afg‘onshunos, f.f. d-ri, prof. 1942-y. Toshkent shahrida tug‘ilgan. M.A.M. Afg‘on va Sharq xalqlari adabiyoti tarixi, manbashunosligi, matnshunosligi, Afg‘oniston xalqlari tillari, folklori hamda N. ijodi bo‘yicha ilmiy yo‘nalishlarda izlanishlar olib borgan. U “Shohnoma”ning 1000 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan xalqaro konferensiyada “Shohnoma va Alisher Navoiy” mavzusida, shuningdek, N. tavalludi munosabati bilan o‘tkazilgan seminar va davra suhbatlarda birinchilardan bo‘lib N. asarlari konkordansini ishlab chiqish, N. bibliografiyasini yaratish hamda N. asarlari onomastikasi bo‘yicha ilmiy ma’ruzalar b-n qatnashgan. M.A.M. A.Quronbekov va M.Imomnazarov b-n hammualliflikda “Alisher Navoiy asarlarining tanqidiy matnlari xususida” maqolasini chop ettirgan. Bundan tashqari u N. dostonlari konkordansining mualliflaridan biri hisoblanadi. U 100 dan ortiq ilmiy maqolalar, monografiyalar va o‘quv qo‘llanmalar muallifi. Bir qancha Xalqaro ilmiy konferensiyalar ishtirokchisi. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi.

Bugungi kunda M.A.M. o‘z hamkasablari – f.f. d-lari, prof.lar A.Quronbekov va M.Imomnazarovlar bilan hamkorlikda davlat granti asosida N. asarlari to‘liq konkordansini tuzish va tadqiq etish ustida ish olib bormoqda. Hozirga qadar “X.” tarkibidagi “H.A.”, “F.Sh.”, “L.M.”, “S.S.” dostonlarining konkordanslari tuzatilgan tanqidiy matnlari b-n xalqaro transkripsiyada nashrdan chiqdi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик. 6-8-жилдлар. – Т., 2011.*

S.O‘.

MANOQIB (ar. – madh-u ta’rifga munosib ezgu ishlar, go‘zal sifatlar) − mashhur din va tasavvuf ahlining hayoti, faoliyati, favqulodda xususiyatlari, namunali xulqini yod etib yozilgan asar. M. dastlab hazrat Ali (r.a.) va uning avlodidan chiqqan o‘n ikki imom ta’rifida bitilgan. Lekin keyinchalik din-u tasavvufning ulug‘ namoyandalari va rahnamolarining hayoti va hollari haqida ham yaratila boshladi. U, asosan, mashhur so‘fiylar yoki ulamolarning shogirdlari va hammaslaklari tomonidan yozilgan. Unda mashhur shayx-u valiylarning ibratli faoliyatlari va g‘ayritabiiy hollari ko‘tarinki uslubda mubolag‘ador qilib tasvirlangan. Sayyid ibn Shahobuddin Hamadoniyning Ali (r.a.) avlodi ta’rifiga bag‘ishlangan “Manoqib ul-sodot” Abduqayumxoja ibn Eshon Shamsuddinxojaning “Manoqibi Xoja Yusufi Sayfiddini Boharziy” manoqiblari shular jumlasidandir. Ba’zi adabiyotshunoslar N.ning “H.S.H.A.”, “H.P.M.” asarlarini ham

M. janri namunasi deb hisoblaydilar. Lekin ular tasvirning sodda va samimiyligi, ortiqcha mubolag‘aga yo‘l qo‘yilmaganligi, voqealarning hayotiyligi bilan realistik asarlarga o‘xshab ketadi. Shuning uchun B.Nazarov ularni M. holot deb ataydi. “Manoqib holot o‘z zamonasining shoir va yozuvchilaridan tashqari avliyo-yu shayxlarning hayoti va faoliyati haqidagi risolaga o‘xshash asarlardan hisoblanadi. M. holotlarda odatda biror-bir mashhur valiy-shayxning, tarixiy shayxning hayoti, ijodiy faoliyati, shaxsiy fazilatlari yoritiladi va tarjimayi hollari b-n birga ularning shaxsiyati, zamondoshlari bilan munosabati, ijtimoiy faoliyatiga doir hikoyat, rivoyat va naqllar kiritiladi. Natijada, M. holotlarda ilmiy va ijodiy dalillar badiiylik b-n qorishib ketib, ular o‘z zamonasi nasrining namunasiga aylangan. Bunday M. holotlardan Xondamirning “Makorim ul-axloq”, N.ning “X.M.”, “H.P.M.”, “H.S.H.A.” kabilarni eslatish mumkin”.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамсат ул-мутаҳаййирин. ТАТ. 10 жилдлик. 5-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ҳолоти Саид Ҳасан Ардашер. ТАТ. 10 жилдлик. 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ҳолоти Паҳлавон Муҳаммад. ТАТ. 10 жилдлик. 10-жилд. – Т., 2011; Ғаниева С. Навоий насри нафосати. – Т., 2000; Назаров Б. Мусулмон агиографиясининг турлари // Адабиёт кўзгуси. № 6.*

E.O.

MANSUR SAMARQANDIY (XV asr) – musavvir va xattot. Samarqandda tug‘ilgan. Naqqoshlikni Xoja Abdulhaydan o‘rganadi. M.S. jadval tortish, tazhib va lavvohlikda mahorat kasb etadi. Kotiblik san’ati noziklarini M.S. Sulton Ali Mashhadiydan o‘rganadi. Hayotining oxirgi yillarida Husayn Boyqaro kitobxonasida jadvalkashlik va lavvohiylik b-n mashg‘ul bo‘ladi.

M.S. N. va Jomiy devonlarini kitobat qilgani va bezaganligi haqida ma’lumotlar bor.

Ad.: *Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. – Т., 1991.*

Muh.A.

MANTIQ (ar. – nutq, til; so‘zlash; logika). 1. To‘g‘ri tafakkur yuritishning asosiy qonunlari va shakllari haqidagi fan; 2. Gap, fikr, harakat va shu kabilarning aqlga monandligi, asosliligi; 3. Ichki qonuniylik, qonuniyat. N. asarlarida har uchala ma’nosi ko‘p marta qo‘llanilgan.

N. “H.A.” dostonining avvalgi maqolatida Imonni sharhlar ekan, uni mantiq (nutq) b-n birga insonni hayvondan ajratib turuvchi asosiy chegara deb ta’riflaydi:

Kimki jahon ahlida inson erur,
Balki nishoni anga imon erur.

Ulki had-u rasm qo‘yar mantiqiy,
Toki bu hayvoni bila notiqiy.

“F.Sh.” dostonida Mehinbonu va Shirin qasrda Farhod uchun ziyofat uyushtirarkan, ilm-u hunarda barkamol o‘n dilbarning uchinchisi Diloso M. ilmining qonun-qoidalarini mukammal egallagani xabarini beradi va M.ni fan sifatida taqdim etadi.

Biri ash’or bahri ichra g‘avvos,
Biri advor davri ichra raqqos.
Biri mantiq rusumida raqamkash,
Biri hay’at ruqumig‘a qalamkash.

...Dilorom-u Diloro-yu Diloso,
Gulandom-u Sumanbo‘-yu Sumanso.

“H.S.A.” manoqibida ham N. Hasan Ardasherning mantiq ilmida zamonasining yagonasi bo‘lgani ta’kidlaydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ҳолоти Саид Ҳасан Ардашер. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

S.O‘.



“MANTIQ UT-TAYR” (“Qush tili”) – Farididdin Attorning majoziy uslubdagi asari. 54 guftor va bir natijadan iborat – jami 4458 bayt. Asar vahdati vujud g‘oyasi asosiga qurilgan. Muallif vujudi mutlaq va mavjudot yagonaligini Simurg‘ va dunyo qushlari timsolida gavdalantiradi. N. ta’biri b-n aytganda:

Ondakim, darj etti qushlardin maqol,
O‘zga tildir, o‘zga so‘zdur, o‘zga hol.

“M.T.”da tasvirlanishicha, bir kuni barcha qushlar bir yerda yig‘ilib, o‘zlariga podshoh saylamoqchi bo‘ladilar. Shunda majlisga raislik qilgan Hudhud qushlarning ulug‘ podshohi Simurg‘ bo‘lib, u Qof tog‘ining ortida yashashi va uning huzuriga yetish u-n 7 xatarli vodiyni bosib o‘tishi kerakligidan xabar beradi. Aksar qushlar Hudhud rahnamoligida safarga chiqadilar, lekin Bulbul kabi ba’zi qushlar o‘zlarini chetga oladilar. Oqibat Simurg‘ jamolining haqiqiy oshig‘i bo‘lgan 30 qushgina 7-vodiyga yetib boradilar. Lekin bu vodiyga yetishlari b-n ular o‘zliklarini unutadilar va o‘zlari izlagan podshoh o‘zlari ekanliklarini anglab yetadilar. Attor ramz-u timsol yo‘li b-n soliklarni dunyo qushlariga, tariqat yo‘lining rahnamosi bo‘lgan pirni esa Hudhudga nisbat beradi. Uning aqidasiga ko‘ra, soliklar vahdatga yetish u-n 7 vodiy – talab, ishq, ma’rifat, istig‘no, tavhid, hayrat va faqr-u fano vodiylarini bosib o‘tishlariga to‘g‘ri keladi. Chunki ular tasavvuf ma’rifatining asosiy bosqichlari hisoblanadi. Soliklar (30 qush) nihoniy maqsadlariga yetishganlaridan keyin Haq va xalq, vahdat va kasrat bir narsa ekanligini anglab yetadilar.

“M.T.”da tasavvufning nazariy va amaliy masalalari ancha chuqur va go‘zal bir tarzda o‘z ifodasini topgan. Abul’alo Afifiyning yozishicha, “M.T.”dagi qushlar – inson nafslari, Simurg‘ esa Xudodir. Vodiylar – so‘fiy yo‘lidagi maqomlarni tamsil etadi. Qushlar sayri ma’naviy safardir. Bu sayr-u sayohat asnosida nafsning g‘aroyib ishlari, turfa hollar, dunyo tashvishlariga bog‘lanish, ilohiy mahbubaga yetish kabi holatlar mushohada qilinadi.

Shayx San’on va uning nasroniy qizga ishqi dostoni “M.T.”da muhim o‘rin tutadi. U o‘z badiiy nafosati va obrazlar olamiga ko‘ra irfoniy ishq va umuman fors-tojik mumtoz adabiyotidagi ishqiy dostonlarning eng sara namunalaridan hisoblanadi.

“M.T.” o‘zidan keyingi Sharq adabiyotiga kuchli ta’sir o‘tkazgan va uning ta’sirida ko‘plab dostonlar yaratilgan. Jumladan, N.ning “L.T.” dostoni ham, muallifning o‘z ta’biri b-n aytganda, uning “M.T.”ga “tarjuma rasmi bila” bitgan javobidir. U besh-olti yoshidayoq “M.T.” dostonini qo‘lidan qo‘ymay, uning ta’sirida xayolparast va xilvatnishin bo‘lib qoladi. Bundan xavotirga tushgan ota-onasi yashirib qo‘yganiga qaramay, yod olib ulgurgani mazkur kitobni ichida takrorlab yuradi. Bir umr bu asar ta’sirida yurib, hayotining so‘ngida – 60 yoshga qadam qo‘yganida unga javoban “L.T.”ni yaratadi. Ustozi Sayyid Hasan Ardasher ham, N. ta’biri b-n aytganda, “Mantiq ut-tayr”ning ko‘pragini yod bilurlar erdi va ko‘p o‘qurlar erdi va ko‘p so‘z xotirlarida bor erdi”.

Attor qadimdan o‘zbek xalqi orasida ham mashhur bo‘lgan. M-n, XV asrning 1-yarmida yashagan mashhur turkigo‘y shoir Atoyi ijodida quyidagi baytga ko‘zimiz tushadi:

Sen buti Chin ishqida holimni ayb
etkan kishi
“Mantiq ut-tayr” ichra ko‘rsun
Shayx San’on qissasin.

XV asrda yashab ijod etgan Mavlono Xoja Qozi Payvandiy Rizoiy “M.T.” va “L.T.”ga ergashib, “Qush tili” asarini yozgan.

Agar N. besh-olti yoshida “M.T.”ni o‘qib, undan ajralolmay qolgan bo‘lsa, Furqat 8 yoshida shu ahvolga tushadi. Bu haqda shoirning o‘zi

shunday yozadi: “Bu aroda vaqtim xomasi hayotim yuzidin sakkiz raqamini chekti, zehnim tayri “Mantiq ut-tayr” kitobig‘a notiq bo‘ldi. Olti oy bol-u par urub, qushlar hikoyatini xotima oshyonasig‘a qo‘ndurdum”.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ҳолоти Саид Ҳасан Ардашер. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Шайх Фаридуддин Аттор. Мантиқ ут-тайр. – Т., 2006; Шайх Фаридуддин Аттор. Мантиқ ут-тайр // Асрорнома. – Т., 2012; Фурқат. Танланган асарлар. 2 жилдлик, 2-жилд. – Т., 1959; Муҳаммадхўжаев А. Мантиқ ут-тайр // Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. 2-жилд. – Душанбе, 1989. – С. 155; Ҳаққул И. Навоийни мафтун айлаган китоб // Шайх Фаридуддин Аттор. Мантиқ ут-тайр. – Т., 2006; Олим С. Ишқ, ошиқ ва маъшуқ. – Т., 1992; Очилов Э. Аттор абадияти // Шайх Фаридуддин Аттор. Асрорнома. – Т., 2012; Ҳасанова Ш.С. Мавлоно Хожа Қози Пайвандий Ризоийнинг “Қуш тили” достони ва унинг қиёсий-текстологик тадқиқи. Номзодлик диссертацияси. – Т., 2006.*

E.O.

MANUCHEHR SAMARQANDIY – (XV asr 2-yarmi, Samarqand – XVI asr boshlari, Hirot) – musavvir. Naqqoshlik, jadval tortish va zarhal berishda benazir bo‘lgan. Naqqoshlik san’atini Samarqandda o‘rganib, tajribasini orttirish, hunarini yanada takomillashtirish maqsadida Buxoro, Tabriz va Hirotga boradi. N. va Abdulloh Xotifiy devonlariga bezak bergan. Uning “Yo‘lbars ovi” degan mashhur surati bizgacha yetib kelgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик. 1-4 жилдлар. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1989.*

E.O.

MANSHUR (ar.) – farmon, yorliq; podshoh farmoni; biror mansabga tayyorlash haqidagi shoh yorlig‘i. M-n, Husayn Boyqaro Hirot taxtiga o‘tirganida bolalik do‘sti N.ni Samarqanddan maxsus M. b-n chaqirib oladi va muhrdorlik vazifasiga tayinlaydi. Bu haqda shoirning o‘zi “V.” asarida shunday yozadi: “Kim, nogoh saltanat gulshanidin inoyat nasimi esa kirishti va xilofot borgohidin hidoyat qosidi yetishti va davlat manshurin ilgimga berdi va ul manshur mazmuni bu erdi:

... Yo‘qtur sanga vaqt go‘sha tutmoq,
Ishrat gulin oh ila qurutmoq.

Chun hukmni anglading, dam urma,
Balkim dam ururg‘a dag‘i turma.

Qulluqqa ko‘ngulni chust bog‘la,
Xizmatqa belingni rust bog‘la.

Yoki ukasi Darveshalining isyonidan keyin N.ning muxoliflari bunda akaning ham qo‘li borligini aytib, fitna-fasod olovini yoqadilar. Shoir va uning yaqinlari to‘g‘risida turli mish-mishlar tarqaladi. Bundan N. behad aziyat chekadi. Shunda Husayn Boyqaro do‘stining davlat va xalq oldidagi xizmatlari e’tirof etilgan va o‘zining unga hurmati va ishonchi bildirilgan maxsus farmon – davlat manshuri chiqaradi. Turkiyalik n.shunos Y.Chetindog‘ ta’biri b-n aytganda, “Ehtimol, bu tarixda bir insonga hurmat ko‘rsatish yuzasidan chiqarilgan eng birinchi farmondir”. Unda, jumladan, quyidagilarni o‘qiymiz: “Shahzodalar, amirlar, sadrlar, vuzaro va a’yonlar va bil umum taba’in bilsinlarki, rukn us-saltana, umdat ul-mamlaka, muqarrab ul-hazrat us-sultoniy Nizomiddin Amir Navoiy shafqatli qalbi ila bu yuksak davlat quyoshining tulu’i zamonidin beri yaxshi niyatli fikrini va buyuk qudrat va duryatli niyatini bu davlatning yuksalishi u-n sarf etmish, azamat va rutbasini mening qardoshligim darajasiga yuksaltirmishdur. Va bu yaqinlik kundan kunga, balki soatdan soatga ziyodalashmoqdadir. Xotirimga keldiki, bu sirada mushorin ilayhin qardoshi ta-

rafindan voqe’ bo‘lg‘an va afvina qaror berilgan yo‘lsiz harakatlari ba’zi adashganlar va g‘aflatga tushganlar umdat ul-mamlakat bo‘lgan mushorun ilayhin borasida muassir o‘ylaydilar. Mamlakatning har bir fuqarosiga amr etamanki va har bir kishi bilib qo‘ysinki, uning bizning nazdimizdagi mahramiyat va xususiyati tasavvur etganlaridan ming karra ziyodadir. Va istisnosiz har bir kishi unga hurmat ko‘rsatishga burchlidir”.

M. so‘zidan N. o‘zining turli janrdagi she’rlarida ham muayyan badiiy maqsadini ifodalash u-n mahorat b-n foydalanadi. M-n:

Dilrabolar dog‘i jonim
safhasida go‘yiyo
Dard eli ishqim uchun muhr
aylagan manshur erur.

Ad.: *Алишер Навоий. Вақфия. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Четиндоғ Ю. Алишер Навоий. – Т., 2013.*

E.O.

MANG‘IT – urug‘ nomi. N. “S.I.” dostonida M.larning o‘zbeklar b-n birgalikda Doro lashkarlari tarkibida Iskandarga qarshi janglarda ishtirok qilganligini, ramziy ma’noda, o‘z davri tarixi nuqtayi nazaridan juda to‘g‘ri badiiy ifodalab bergan:

Yana mang‘it o‘zbak bila yondoshib,
Iki zulfdek tuzlari chirmashib.

Darhaqiqat, XIII asr boshlarida Chingizxon qo‘shinlari tarkibida Dashti Qipchoqqa kelib qolgan M.lar XIII–XIV asrda Volga va Ural daryolari oralig‘ida yashab, o‘z qabilaviy butunliklarini saqlab qolganlar, lekin o‘zlarining mo‘g‘ul tilini saqlab qola olmay, qipchoqlar ta’sirida turkiylashib ketganlar.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Заки Валидий. https://e-tarix.uz/milliyat-insholari/134-uruglar.html; Мирза Абд-ал-Азим Сами, Тарих-и салатин-и мангитийа, – М., 1962; Трактат Ахмада Даниша, История мангытской династии, пер. и предисл. И.А. Наджафовой. – Душанбе, 1967; Очил Бўриев. Манғит. ЎзМЭ. 5-жилд. – Т., 2003.*

S.O‘.

“MAONIY AHLINING SOHIBQIRONI” – adabiyotshunos olim N.Jabborovning N.ning shaxs va davlat arbobi sifatidagi fazilatlari, bunyodkorlik faoliyatini yangi talqinlar asosida yoritgan kitobi (T.: Adabiyot, 2021. 164-bet). Unda shoirning irfoniy va adabiy-estetik olami b-n bog‘liq o‘ziga xos ilmiy qarashlari ilgari surilgan. Tadqiqot quyidagicha besh qismdan tashkil topgan: “Komil shaxs va ijodiy salohiyat uyg‘unligi”, “Buyuk shoirning irfoniy va adabiy estetik olami”, “Xamsa – buyuk badiiy obida”, “Diniy-ma’rifiy asarlar mohiyati”, “Navoiyga izdoshlik saodati”. Har bir qismda N. dahosining muhtasham qiyofasi yaqqol bo‘rtib ko‘rinadi va buyuk so‘z san’atkorining tengsiz badiiy mahorat sirlari teran tahlil qilinadi. Shoir tarjimayi holi orqali ijodi, ijodiyoti vositasida tarjimayi holi o‘rganilgan kitob asarlari matnining tiliga, ma’nosiga, mahobati-yu jozibasiga tayanib yaratilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-жилдлар. – Т., 2011; Жабборов Н. Маоний аҳлининг соҳибқирони. – Т., 2021.*

M.A.

“MAOSIR UL-MULUK” (“Hukmdorlarning ezgu ishlari”) – mashhur muarrix G‘iyosiddin Xondamirning N. rag‘bati va homiyligida 1498–1499-yy.da yozgan podshoh va hakimlarning ezgu va ulug‘ ishlari haqida hikoya qiluvchi ilk tarixiy asari. Huzuriga yo‘l topgan bu yosh yigitdagi noyob iste’dodni payqagan shoir uni mazkur asarni yozishga ilhomlantirib, o‘sha davrda Xurosondagi eng boy kitob xazinasi bo‘lgan o‘zining katta kutubxonasini uning

ixtiyoriga topshiradi. Asar 3 bobdan iborat bo‘lib, 1-bobda Kayumarsdan Anushervongacha hukmronlik qilgan Ajam shohlari; 2-bobda Odam (a.s.)dan tortib Buzurgmehrgacha o‘tgan hakimlar va donishmandlar; 3-bobda Muhammad (s.a.v.) va imomlarning ezgu va ibratli ishlari yoritiladi. Bu boblardan so‘ng umaviylar, abbosiylar, tohiriylar, somoniylar, g‘aznaviylar, kurtlar sulolalari xalifalari, hukmdorlari, hokimlari, amirlarining yaxshi ishlari to‘g‘risidagi fasllar keltiriladi. Asarning oxirgi bo‘limi turk xoqonlarining ulug‘ ishlari bayoniga bag‘ishlangan. Husayn Boyqaro va N.ga zamondosh bo‘lgan hukmdorlar, olim va donishmandlar haqida ham ma’lumotlar berilgan. Asar qo‘lyozmasining yagona nusxasi Britaniya muzeyida 29-ashyo raqami b-n saqlanadi. Asar 1993-y. da Tehronda Mirhoshim Muhaddis tomonidan nashr etilgan.

Ad.: *Ғиёсиддин Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – T., 2015.*

E.O.

MARV – O‘rta Osiyoning eng qadimgi shaharlaridan biri. Murg‘ob daryosi qirg‘og‘iga joylashgan. N. “S.I.”da M.ning geografik joylashuvi, u yerda o‘tgan ayrim podshohlar haqida quyidagi baytlarni yozgan:

Yana bir dog‘i keldi Murg‘ob rud,
Ki sha’nida kavsardin o‘ldi durud.

Olib zahmati jism-u ranji ravon,
Xirad aytibon oni ganji ravon.

Bo‘lub andin obod Moxon-u Marv,
Ki qushtur tazarv anda, anjor sarv.

Parivashlaridin bo‘lub bahramand,
Qilib taxt Tahmurasi devband.

Bo‘lub so‘ngra Sanjarg‘a oromgoh,
Ki qush ko‘rmay ul nav’ bu domgoh.

M. mil. av. II–III asrlarda obod shaharlardan biri bo‘lib, bir necha bor vayron qilingan va yana tiklangan. M. mo‘g‘ullar tomonidan vayron etilgan. Shohrux davrida yana chiroy kasb etgan.

Chunki Hirot taxtini egallagan temuriylar, shu jumladan, Husayn Boyqaro M.ni o‘zlarining yozgi dam olish joyiga, harbiy istehkomlaridan biriga aylantirgan edilar.

N. M.da birinchi va oxirgi marta qachon bo‘lgani ma’lum emas. Ammo u shoh saroyida rasmiy lavozimga ega bo‘lgandan keyin M.ga tez-tez kelib turgan, ma’lum muddatlarda uzoqroq ham turgan. “Xam.M.”da yozilishicha, N.ning “mashhur “Tuhfatul-afkor” qasidasi Hirotdan M.ga kelayotganda yo‘lda yozilgan, Marvda tugallanib, Jomiyga yuborilgan.

M.da N. madrasa ham qurgan bo‘lib, unga “Xusraviya” (“Podshohga oid”) deb nom qo‘ygan. Xondamir “Makorim ul-axloq”da buni izohlab yozadi: “Uning bu ism bilan atalishining sababi shuki, Sohibqiron podshohning jiyani, Mirzo Kichik deb shuhratlangan marhum shahzoda Mirzo Muhammad Sulton binoning birinchi g‘ishtini qo‘ygan edi. Va shuningdek, “Xusraviya” lafzi “jumal” hisobi bilan uning qurilish yili (hijriy 881, milodiy 1476-1477)ni bildiradi.

M.da musofirlar uchun Langari Mavlono Sirriy degan xonaqohni ham qurgan va bu uning atrofidagi bir necha tarixiy obidalarni, rabotlarni ta’mir etishga o‘z hissasini qo‘shgan.

N.ning “M.” asaridagi qator maktublar ham shoirning M.dagi faoliyati bilan bog‘langan. N.Ustod Hasan Noiy vafotini M.da eshitgan va shu voqea munosabati bilan Jaloliddin Rumiy masnaviysidan mashhur baytni ikkiga bo‘lib tazmin qilgan holda quyidagi she’rini yozgan:

Sharhi hajri shohi ustodon Hasan,
“Bishnav az nay chun hikoyat mekunad”.

Band-bandi o‘ judo gashta zi ham,
“Az judoiho shikoyat mekunad”.

Maz.: Ustodlar shohi Hasandan judolik sharhini “qanday hikoya qilishni naydan eshit”. Uning

bo‘g‘in-bo‘g‘ini bir-biridan ajralgan, “judolikdan shikoyat qiladi. Bu she’r Jomiyga yetib borganda Jomiy unga shu ruhda she’riy javob yozgan.

N. marvlik shoirlardan Mavlono Nodiriy, Mavlono Nargisiy kabilar bilan yaqindan tanish bo‘lgan va ular to‘g‘risida “M.N.”da muhim ma’lumotlar qoldirgan. N.ning bir qishni podshoh Marvda o‘tkazgani, N. turgan chodirga bir qashqarg‘urrak (foxta) uya yasab tuxum qo‘ygani, u yerdan ko‘chishga to‘g‘ri kelganda N. u qushni bezovta qilmaslik uchun chodirni buzmay, qush bola ochguncha o‘z mulozimini qo‘yib ketgani haqida Xondamir “Makorimul-axloqda” maxsus hikoya keltiradi. M. haqidagi ayrim xotiralar N. zamondoshlarining asarlarida ham uchraydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-жилдлар. – Т., 2011; Гиёсиддин бинни Ҳумомиддин Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Т., 1948; Бертельс В.В. Сочинения, II том часть 2, – М., 1964; Бертельс Е.Э. Навоий. – М., 1948; Сб. “Алишер Навоий”, М.–Л., 1946; Ўзбек адабиёти тарихи. 5 жилдлик, 2-жилд. – Т., 1977.*

A.A.

MARSIYA (ar. – yig‘lamoq, aza ochmoq) – biror kishining vafoti munosabati b-n uning xotirasiga bag‘ishlab yoziladigan motam she’ri. U ko‘proq mashhur shaxslar va yaqin kishilar o‘limi munosabati bilan yozilib, unda marhumning hayot yo‘li eslanib, jamiyatdagi mavqeyi, erishgan yutuqlari, ezgu fazilatlari e’tirof etilib, uning vafotidan afsuslanish, g‘am-alam va hasrat ohanglari o‘z ifodasini topadi. M.da asosiy e’tibor mazmunga qaratilib, shakl yetakchi o‘rin tutmaydi. Shuning u-n u xohlagan janrda yozilishi mumkin. Hajmi, qofiyalanish tartibi ham qat’iy belgilanmagan.

N. ijodida ikki M. mavjud bo‘lib, ikkalasi ham ustozlari – o‘ziga yaqin kishilar vafoti munosabati b-n yozilgan. Biri – Abdurahmon Jomiyga bag‘ishlangan 7 bandli, har bandi 10 baytdan, jami 70 bayt – 140 misradan iborat “Marsiya” she’ri bo‘lsa, ikkinchisi – Sayyid Hasan Ardasher xotirasiga bitilgan 7 qismli, har bir qismi 8 baytdan iborat, jami 56 bayt, 112 misrali tarkibband.

Har ikkala M.da ham shoir ustozlari hayoti va faoliyatiga to‘xtalib, ularning ulug‘lik sirlarini ochib beradi, mubolag‘ali tasvirlar va betakror tashbehlar orqali ularning nafaqat o‘z davri ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-adabiy, madaniy-ma’naviy hayotida tutgan o‘rni, balki ilm-u adabiyot, din-u tariqat rivojidagi mavqeyi, insoniyat tamaddunida qo‘shgan hissalarini ko‘rsatadi, yuksak insoniy fazilatlari xususida so‘z yuritib, ulardan judolik alami tug‘dirgan g‘am-u hasratlarini hassos misralarda ifoda etadi.

Jomiyga bag‘ishlangan “Marsiya”sini shoirning ma’rakasi kuni Husayn Voiz Koshifiy minbardan turib xalqqa o‘qib bergan.

Sayyid Hasan Ardasher vafot etganida N. Hirotda bo‘lmagan – saltanat tashvishlari b-n safarda bo‘lgan. Shaharga qaytib, eng yaqin kishisidan ajralganini eshitgan shoir cheksiz dard-u iztirob bilan marsiya-tarkibbandini bitib hovurdan tushadi.

O‘z-o‘zidan ustozlari vafoti bahona mutafakkir shoir hayot va o‘lim, tiriklik mohiyati va inson umrining ma’no b-n bog‘liq ko‘p yillik kuzatishlari, falsafiy fikr-mushohadalarini ham marsiyalari qatiga singdirib ketadi. Chunonchi, Jomiyga bag‘ishlangan marsiyaning ilk bandida falakning jafokorligi-yu dunyoning bevafoligi talqinini ko‘ramiz:

Har dam az anjumani charx jafoye digar ast,
Har yak az anjumi o‘ dog‘i baloye digar ast.
Hast motamkadaye dahr, ki az har tarafash
Dudi ohi digar-u nolayi voye digar ast.

Tarj.: Har nafas falak tomonidan yangi bir jafo yetishadi, uning har bir yulduzi bir o‘zga baloning dog‘idir. Bu dunyo bir motamxonaga o‘xshaydi – uning har tarafidan keladigan oh tutunib, oh-u voh nolasi boshqachadir.

O‘z o‘limi bilan jahon ahlini zor, qiyomatgacha firog‘iga zor qilib ketgan zotni barcha fanda olam yagonasi, bashar jinsining eng afzali deb ta’riflaydi:

Do‘ston, dar hama fan nodirayi olam ku?
Afzal-u a’lami avlodi bani odam ku?

Sayyid Hasan vafotiga bag‘ishlangan tarkibbandini ham dunyoning sitamgarligi haqidagi mulohazalar b-n boshlab, keyin ustozi ta’rifiga o‘tadi – yetti falak durjida u kabi pok dur yo‘qligi, u soliki atvor, koshifi asrori, faqr manzillarining yo‘lchisi va yetakchisi, fano ahlining peshvosi bo‘lgan murshidi ahrorligi va boshqalar xususida so‘z yuritadi, o‘zi bilan ustozi orasidagi munosabat va yaqinlikka to‘xtaladi.

Meni motamzadag‘a ham ota,
ham murshid-u pir,
Balki ham g‘amxo‘r-u ham yovar-u
ham yor qani?

Dunyodan shikoyat b-n boshlangan tarkibband dunyoga ko‘ngil bog‘lamaslik, umrga e’timod qilmaslik faqat Haq boqiy-u boshqa barchasi foniyligi haqidagi pand-u o‘gitlar bilan nihoyasiga yetadi:

Har kishi komil erur, bas anga
Haq bandalig‘i,
Mundin o‘zga tamayi kasbi kamol
aylamangiz...
Olami foniy uchun ranj-u mashaqqat
chekmang,
Mol uchun g‘am yemangiz, fikri manol
aylamangiz.

N. marsiyalari ham falsafiy mulohaza-muhokamalar, tasavvufiy g‘oyalar, axloqiy-ta’limiy fikrlarga boyligi, badiiy jihatdan yuksakligi b-n o‘ziga xos ahamiyatga ega.

Ad.: *Алишер Навоий. Наводир ушшабоб. ТАТ. 10 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Хамсат ул-мутаҳаййирин. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Т., 1983; Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2010.*

E.O., M.A.

MASAL – o‘tmish adabiyotimizning ko‘pgina namoyandalari ijodida bo‘lganidek, N. ijodiy merosida ham “masal” so‘zi mustaqil adabiy janrni emas, balki hozirgi tushunchadagi maqolni anglatadi. “G‘.S.”dan o‘rin olgan g‘azalda endilikda deyarli unutilgan xalq maqolini keltirar ekan, shoir shunday misralarni bitadi:

Keldi manga chu belini chektim, masaldurur
Kim, “tortsa bo‘lur keluri bo‘lsa qil bila”.

“X.M.” devonlariga kirmay qolgan g‘azallarning birida esa bu so‘z ishtirokida quyidagi bayt uchraydi:

Vaslin ista, ey ko‘ngul, shoyadki,
axir topqasen,
Chun masaldurkim, “topar har
nimani jo‘yandasi”.

Ba’zi o‘rinlarda “Masal” atamasi “kabi, monand, o‘xshashdek” ma’nolarida ishlatilgan. Quyidagi misolda xuddi shundaydir:

Gar yomon holimga ko‘z solmas,
ajab yo‘qmish, erur,
Ul qaro ko‘zlar qaro baxtim
masallik uyquchi.

Ayni zamonda ayrim dalillar asosida, N. adabiyotshunoslikka oid ilmiy asari, – “M.N.”da “masal” atamasini hozirgi ilmdagi joriy ma’noda, ya’ni mustaqil adabiy janrning nomi sifatida qo‘llagan, degan xulosaga kelish mumkin. “Mavlono Tusiy, – deb yozadi N. bir o‘rinda, – masalgo‘y va g‘azalgo‘y erdi”. Sayfiy taxallusli

ikkinchi bir shoirning bu janrdagi ijodini “masal tariqin bag‘oyat yaxshi aytti”, deya ijobiy baholaydi. Aftidan, Sayfiy masallari o‘sha davrda xalq orasida keng tarqalgan, shuhrat qozongan. N.ning ko‘rsatishicha, ayrim shoirlar ularga tatabbu’ qilganlar.

“M.N.”ning uchinchi majlisida shunday ijodkorlardan biriga quyidagi xarakteristika bitilgan: “Mavlono Shukriy masalomuz ayturda Mavlono Sayfiyg‘a tatabbu’ qilur. Ul uslubda zehni yaxshi borur”.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ус-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Абдуғафуров А. Навоий сатираси. – Т.,1966.*

A.A., B.R.

“MASJIDQA NECHA AHLI RIYODEK YETAYIN...” ruboiysi

Masjidqa necha ahli riyodek yetayin,
Yo rind kebi azimati dayr etayin.
Maqsud topilsa yaxshi, yo‘qsa netayin,
Boshimni olib qay sari emdi ketayin.

Ma’lumki, har bir musulmon u-n masjid muqaddas dargoh va muborak sajdagohdir. Masjidga qatnab, namoz o‘qish, nainki ong-u axloqda, balki qalb va ruhoniyatda ham favqulodda xolislik hamda pokizalikni talab qiladi. Lekin masjidga qatnashning o‘zi dini niyatning tozaligiga kafolat bo‘la oladimi? Yo‘q, albatta. Yolg‘onchi, hiylagar, gumroh va riyokor kimsalar namozxonlar orasida ham uchrashi sir emas. N.ga ko‘ra, ahli riyo ularning eng xavflisidir. Shu boisdan ulug‘ shoir ruboiyni riyo va riyokorlik holini ochishga bag‘ishlagan. Bundoq qaralganda, she’rda ahli riyo to‘g‘ridan-to‘g‘ri qoralanayotgani yo‘q. Ularning holiga bir o‘xshashlik sezilgani uchun shoir o‘zini ayblayotir:

Masjidqa necha ahli riyodek yetayin.

Bu – botindagi hiyla va riyoni sezib-sezmay, qachongacha masjidga borib kelayin, degani bo‘ladi. Odatda, holat ziddiyati ham odamni yo‘l izlashga undaydi. Ikkinchi bir niyat shundan tug‘ilgan:

Yo rind kebi azimati dayr etayin.

Rind – dunyoni sevadigan, hayot zavq-shavqiga ko‘ngil bog‘lagan kishi. Qalbdagi “bo‘shliq”ni u may va sharob bilan to‘ldirishni istaydi. Dayr – kaliso, butxona demak. Bu so‘z majozan “mayxona” o‘rnida qo‘llanilgan. Ammo zinhor-bazinhor rindni aroqxo‘r, dayrni aroqxona deb o‘ylamaslik kerak. Chunki N. bunday narsani xayolga ham keltirgan emas. Dayrdan murod – haq oshiqlarining ko‘ngli. Rindlar qonib-qonib ichadigan “may” esa ilohiy ishq. Ruboiy qahramoni bir jamoadan ajralib, ikkinchi toifa – ma’no ahli safiga qo‘shilmoqchi. Shu tarzda asl maqsadga erishilsa-ku, yaxshi. Erishilmasa-chi? Unda nima bo‘ladi? Bu savollarga ochiq-oydin javob berishning ilojsizligi so‘nggi misralarni o‘qiganda ravshanlashadi:

Maqsud topilsa yaxshi, yo‘qsa netayin,
Boshimni olib qay sari emdi ketayin.

Inson qismatiga daxldor shundoq chigallik va mushkulotlar borki, na din, na tariqat, na ilm-fan ularni to‘la-to‘kis hal etib berolmaydi. Ayniqsa, fikr odami o‘zini o‘zi chuqur anglashga kirishganda, ikkilanish, iztirob, o‘z shaxsidan qanoatlanmaslikdan bo‘lak bir qanoat topolmaydi. Va “Boshimni olib qay sari... ketayin”, degan mazmundagi bir tuyg‘u uning qalbida hamisha qalqib turadi. Fikr turg‘unligi va mahdudligidan qutulishga urinishning bitta asosiy chorasi ham mana shu.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик. 1 жилд. – Т., 2011.*

I.H.

MASJIDI JOME' – Hirot shahridagi mashhur Juma Masjidi. XII asr oxiri – XIII asr boshlarida bunyod etilgan. Masjid juda mahobatli bo‘lib, uning qurilishi uzoq davom etgan. Uni Sulton G‘iyosuddin Muhammad ibn Som qurishga boshlagan, lekin bitkaza olmay vafot etgan. Masjidni bitirish uning inisi Sulton Shihobudddinga ham nasib etmagan va nihoyat Sulton G‘iyosuddinning o‘g‘li G‘iyosuddin Mahmud hukmdorligi davrida qurilish ishlari oxiriga yetkazilgan. Chingizxon istilosi vaqtida masjid vayron bo‘lgan va kurdlar sulolasidan Malik G‘iyosuddin tomonidan qayta tiklangan. Temuriylar davrida masjid ta’mirga muhtoj bo‘lib qolganligi sababli u yerda tuzatish ishlari amalga oshirilgan. Sulton Husayn Boyqaro hukmdorligi yillarining oxirlarida bo‘lgan zilzila tufayli binoga katta zarar yetgan edi. Uning qaytadan tiklanib, o‘z holiga keltirilishi va Hirotning eng muhtasham obidalaridan biriga aylanishi N. nomi b-n bog‘liq.

N. 1498-y.da Husayn Boyqarodan ruxsat olib u yerda qurilish ishlarini boshlagan. U bu ishga Xurosonning tajribali, mohir me’morlari va muhandislari, hunarmand ustalarini jalb etgan. Ular binoning asosini, gumbaz va peshtoqlarini oldingidan ham muhtashamroq qilib tiklaganlar. Masjidning ayvoni ham oldingidan balandroq qilib qurilgan. Shundan so‘ng N. masjid binosiga bezak berish uchun naqqoshlar va koshinkorlarni ishga solgan. Shu tariqa bu yerda bir yil davomida qurilish va bezatish ishlari olib borilgan. N. har kuni ishning borishidan, usta va hunarmandlarning ahvolidan habar olib, ularga g‘amxo‘rlik qilib, turli in’om va ehsonlar ko‘rsatib turgan. Manbalarda xabar berilishicha, u ayrim kunlari to‘nining etagini beliga qistirib, usta va mardikorlar b-n bir qatorda ishlagan. Binoning naqadar mahobatli ekanligini Xondamirning “Xulosat ul-axbor” asaridagi mana bu ma’lumotlardan ko‘rish mumkin: “Bu sharofatli jom’e masjidi 408 gumbaz, 130 ravoq hamda 444 pilpoyadan iborat; uzunligi devor tarafdan 254, eni 150 zir’a, maqsura supasining uzunligi 65 va eni 20 zir’a; toqining aylanasi 26 zir’a; shimol tarafidagi sufaning uzunligi 22 va eni 13,5 zir’a; podshoh maqbarasi gumbazining uzunligi 24, eni 23 zir’a; masjid sahnining uzunligi 114, eni 74 zir’a”.

Jom’e masjidining 6 ta darvozasi bo‘lgan. Qurilish ishlari nihoyasiga yetgandan so‘ng (1500-yil 16-mart) N. bu yerda katta osh bergan. Ta’mirlashda qatnashgan barcha ustalar va ishchilarni ziyofat qilib, ularning mehnatini taqdirlagan.

Ad.: *Алишер Навоий. Вақфия. ТАТ. 10 жилдлик. 9 жилд. – Т., 2011; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985; Абдураззоқ Самарқандий. Матлаъ ас-саъдайн мажма ал-баҳрайн. 2- жилд. – Т., 2008.*

Q.E.

MASIH (ar. – muqaddas yog‘ surilgan) – qutqaruvchi, xaloskor. “G‘iyos ul-lug‘at”da keltirilishicha, do‘st va ko‘p sayr qiluvchi. Shu ikki ma’nosi b-n Iso (a.s.)ning laqabiga aylangan. Chunki u zot Haqning do‘sti bo‘lgan va yolg‘izligi uchun yer yuzini ko‘p kezgan.

M. Iso (a.s.)ni anglatib, u uning ismi oldidan qo‘yiladi yoki alohida qo‘llanadi.

M. so‘zining yolg‘onchi, kazzob; bir ko‘z-u bir qoshli maxluq degan ma’nolari ham bor. Bu ikki ma’nosi b-n u Dajjolning laqabi ham bo‘lib keladi. Dajjolni al-Malih al-kazzob va al-Masih ad-Dajjol deb ham atashgan.

M. ba’zida kumush parchasi va zarb qilinmagan tilla ma’nosida ham keladi.

M. jonbaxsh oshiqning to‘lgan vujudiga hayot baxsh etuvchi ma’nosida ham qo‘llanadi.

M. b-n bog‘liq obrazlar, iboralar N. ijodida turli badiiy maqsadlarda keng qo‘llanadi.

“Masih lafzida so‘z ko‘ptur”, – deydi N. ham “Tarixi anbiyo va hukamo”da.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Ғиёс ул-луғот. 2-жилд. – Душанбе, 1988; Ислом. Т., 2004; Қисаси Рабғузий. 2-китоб. – Т., 1991.*

E.O.

MASIH BALXIY – Mavlono Shayxiy deb yuritilgan (1476–1480, Fushanj, Movarounnahr – 1568, Xoja Rushnoyi, Balx).

Adabiy merosi asosan g‘azallardan iborat. Ularda ishq-u muhabbat, tabiat tasviri, pand-u hikmatlar qalamga olinadi. N. “M.N.”da keltirishicha, M.B. Makka ziyoratiga borgan chog‘ida sahroda daraxt tagida oyog‘idan tikan sug‘urib o‘tirganini ko‘rgan sho‘xtab’lardan biri shoirning quyidagi:

Moro bo jafo kushta pushaymon juda boshi,
Huni dili mo rexta pazmon shuda boshi.

Tarj.: Jafo bilan o‘ldirib, pushaymon bo‘lgandirsen, yuragimiz qonini to‘kib, xafa bo‘lgandirsan) baytiga javob tarzida:

Az ranji rahi dur-u sarxori Mug‘aylon
Az omadani Ka’ba pushaymon shuda boshi.

Tarj.: Uzoq yo‘l, Mug‘ayxon tikonlari mashaqqati sababli Ka’baga kelganingdan pushaymon bo‘lgandirsan – baytini aytadilar.

“M.N.” tarjimoni Qazviniy shoir nomini “Shayxiy” deb keltiradi va boshqa shoirni aralashtirib yuboradi. N.ning Shayxiy degan tabaslik shoir haqidagi “advor va musiqiyga ham sohibi vuquf” edi, degan so‘zlarni M.B.ga nisbat beradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ус-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

S.G‘.

MASNAVIY (ar. – ikki, ikkilik) – Sharq xalqlari she’riyatidagi she’r turlaridan biri. M. aruz vaznida yozilib, *a-a, b-b, v-v* tarzida qofiyalanadi. N. dostonlari M. da yozilgan. Shoir hayotiy, voqealarni va inson xarakterini yoritib berishda M.ning rolini alohida ta’kidlagan. “S.S.” dostonida bu haqda shunday deyiladi:

Masnaviykim, burun dedim oni,
So‘zda keldi vase’ maydoni.

Vus’atida yuz o‘lsa ma’rakatgir,
Ko‘rguzur san’atin bori bir-bir.

Fors-tojik, ozarbayjon, o‘zbek va boshqa xalqlar adabiyotlarida yaratilgan barcha dostonlar, xususan, “X.”ga oid dostonlar M.da yozilgan. Abulqosim Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Sa’diy Sheroziy, Amir Xusrav Dehlaviy, Kotibiy, Jomiy Abdurahmon kabilarni M.ning mohir ustalari deb hisoblagan. “H.S.H.A.” asarida Sayyid Hasan Sa’diy Sheroziy masnaviylaridan “Bo‘ston”ni alohida ixlos bilan o‘qiganini xabar qiladi. 1480-yy.ning birinchi yarmida Jomiy Abdurahmonning g‘azalchilikdan yuz o‘girishi va “X.” yozishga kirishganligi N. tomonidan g‘oyat yuksak baholandi:

Agar nazmdin borcha uslub anga,
Bori bir-biridin erur xo‘b anga.

Vale masnaviy o‘zga olamdurur,
Ki tab’ig‘a holo musallamdurur.

“M.N.”da N. o‘z davridagi Mavlono Ashraf, Amir Shayxim Suhayliy, Mavlono Fasih Rumiy, Xoja Mas’ud Qumiy, Mavlono Sone’iy, Xoja Xizrshoh, Mavlono Abdullo kabi o‘nlab masnaviygo‘ylar haqida qimmatli ma’lumotlar beradi.

“X.M.”ning birinchi devoni “G‘.S.”ga N. ustozi Sayyid Hasan Ardasherga yozgan mashhur she’riy maktubini “Masnaviy” nomi b-n joylashtirgan.

“X.” dostonlarini yaratish o‘zbek adabiyotida taraqqiyotiga mislsiz hissa qo‘shdi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик. 1-4 жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ус-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

Ab.H.

“MASNAVIY” – N.ning masnaviy janrida yozilib, ustozi Sayyid Hasan Ardasherga yuborgan she’riy nomasi. XV asr 60-yillarning o‘rtalarida Samarqandda bitilgan bu asar mutaqoribi musammani maqsur (mahzuf) vaznida (fauvlun fauvlun fauvlun fauvl − V − − / V − − / V − − / V − (−). O‘zbek adabiyotshunosligida tarjimayi hol xususiyatiga egaligidan “Hasbi hol”, noma janriga mansubligidan “Navoiyning Sayyid Hasan Ardasherga she’riy maktubi” nomlari bilan yuritiladi.

N. Xurosonni tark etib, Movarounnahr sari yo‘l olganida, Sayyid Hasan Ardasher Hirotda emas edi (tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, ehtimol Mashhadda bo‘lgan). Shoirning kutilmaganda “jaloyi vatan” qilishi poytaxt ilmiy-adabiy doirasida turlicha talqin qilingan. Maktubda u ana shu safari sabablarini tushuntiradi. Taniqli n.shunos olim A.Hayitmetovning yozishicha: “Navoiy bilan Abusaid o‘rtasidagi o‘zaro yomon munosabatdan xabardor bo‘lgan ko‘pchilik Abusaid Navoiyni Samarqandga surgun qildi, degan fikrga kelgan. Aslida Navoiy rasmiy ravishda surgun qilinmagan, balki o‘z boshiga tushishi muqarrar bo‘lgan kulfatlarning oldini olib, ziyraklik bilan o‘ziga o‘zi podshohning ko‘zidan uzoqqa turishga hukm chiqargan edi”.

“M.”ni, N.Mallayev yozishicha, tarkibiy tuzilishiga ko‘ra, shartli ravishda muqaddima (hamd, na’t, sano), Sayyid Hasan ta’rifi va tavsifi, mamlakat ahvoli tasviri, muallifning hasbi holi va xotima qismlariga ajratish mumkin.

An’anaga ko‘ra, asar Allohga hamd, payg‘ambarga na’t, uning xonadoni va as'hobiga sano bilan boshlanib, keyin “fazl avjida mehr” Sayyid Hasan ta’rif-tavsifiga o‘tiladi:

Vafo anga pesha, saxo anga fan,
Vafo-vu saxo koni Sayyid Hasan...

Chu sensan bugun olam ahlida fard −
Ki, holin deyolg‘ay sanga ahli dard.

Mang‘akim, vidodingg‘a xursandmen,
Janobingg‘a shogird-u farzandmen.

Shundan so‘ng vatan ichra yashash qiyinlashib, tarki diyor etish har qancha og‘ir bo‘lmasin, taqdir amri bilan beixtiyor oldida safar azmi ko‘ndalang bo‘lgani, bu vaqtda ustozining shaharda bo‘lmagani, lekin u ona yurtiga qaytishi b-n do‘stlar ichra uni izlab topmay surishtirishga tushishi, bu holdan bexabar kishilar uni har xil talqin qilishlari haqida so‘zlab, ketish sababini o‘zi tushuntirib berishi farz ekanligi, shunda turfa taxminlar, anglashilmovchiliklarning oldi olinishini ta’kidlab, ushbu maktub “holatini ayon aylamak” maqsadida bitilganini ma’lum qiladi.

Asosiy qism ham o‘ziga xos kirishdan iborat: avval so‘zning beqiyos ahamiyati, keyin so‘z aytishda o‘zining salohiyati xususida so‘z yuritadi. Bu falak uning kabi noyob iste’dodni hali ko‘rmagani, Firdavsiy o‘ttiz yilda bitgan “Shohnoma”day asarni u o‘ttiz oyda bitishga qodirligi, har kuni xos ma’no va iyhom san’atidan iborat yuz bayt she’r bitish unga halvo yeyishday osonligini aytadi va asl maqsadga ko‘chadi. Ana shunday favqulodda iste’dodni qadrlaydigan kishi, uning xotirjam ijod qilishi u-n sharoit, turkiy she’rga talabgor Hirotda yo‘q. Bu − birinchi sabab.

U o‘zining betakror iqtidori haqida faxr-u g‘urur b-n shunday yozadi:

Men ul menki, to turk bedodidur,
Bu til birla to nazm bunyodidur,

Falak ko‘rmadi men kibi nodire,
Nizomiy kibi nazm aro qodire.

Ne nazme der ersam meni dardnok −
Ki, har harfi bo‘lgay aning durri pok...

Agar xossa ma'no, gar iyhom erur,
Aning kunda yuz bayti halvom erur.

Ikkinchi sabab − Xurosonda jamiyat zavolga yuz tutib, odamgarchilig-u saxovat-u muruvvat o'rnini nifoq-u baxillig-u hasad egallagani, zulm-u sitam avjga chiqib, mamlakat xarob, raiyat qashshoq bo'lgani, o'ziga na yashashga uy, na tirikchilik uchun mablag', na qo'llab-quvvatlaydigan homiy, na dardini tushunadigan do'st-u yor qolgani:

Biravgaki yuz qo'ysa muncha balo,
Ne bo'lg'ay aning chorasi juz jalo?!

Zaruratki, yasab safar bargini,
Tushub yo'lg'a, qilg'ay vatan tarkini.

Uchinchi sabab – tariqat yo'liga kirib, ma'rifatdan bahramand bo'lish. Chunki N. e'tiqodiga ko'ra, insonning bu dunyoda yashashdan maqsadi, Allohni va o'zini tanish. N.Komilovning yozishicha, buning ikki yo'li bor: "Biri − Haqdan jazba yetib, yaqin jomidan mast bo'lish", ya'ni Xudo yodida o'zidan va o'zligidan bexabar bo'lib yurish, dunyoning barcha shug'lidan yuz o'girish, oxir-oqibatda jism vujuddan qutulib, Allohga qurbat hosil qilishdir.

Ikkinchisi − pirga qo'l berib, uning irodasi, amri bilan "fano dashtini kezib, riyozat oqibatida jazba topish...

Birinchi yo'lni N. "majzubi solik" yo'li deb ataydi, ya'ni avval ilohiy jazba (tortilish) yetib, keyin tariqatni qabul qilish. Ikkinchi yo'lni u "soliki majzub" deydi, ya'ni avval tariqatni qabul qilib, tavba, vara', sabr va hokazo maqomlarni bosib o'tgandan keyin hol maqomiga musharraf bo'lish".

Ma'lum bo'ladiki, asarni sinchiklab o'rganish N. tarjimayi holi b-n bog'liq ko'plab muhim nuqtalarga oydinlik kiritadi. Samarqand safari, Abusaid hukmronligi davridagi ahvoli, shoh va shoir munosabati, tasavvuf b-n aloqasi, adabiyotga qarashi, iste'dod ko'lami va qirrasi kabilar shular jumlasidandir.

"M." shoirning avvalgi devonlariga kiritilmaganidan zamondoshlariga keng ma'lum bo'lmagan. N. ba'zi bir tahrirlar b-n uni "X.M."ning ilk devoni "G'.S."ga kiritgan. "M."da realistik tasvir yetakchi bo'libgina qolmay, u badiiy jihatdan ham yetuk va betakror. Shoir unda, ayniqsa, tashbeh, talmeh, tazod, mubolag'a, iyhom, tanosub, laff va nashr kabi she'riy san'atlardan mahorat b-n foydalangan.

"M." n.shunoslikda keng o'rganilib, V.V. Bartold, Y.E.Bertels, O.Sharafiddinov, V.Abdullayev, V.Zohidov, N.Mallayev, A.Hayitmetov, N.Komilovlar uni turli tomondan tadqiq etganlar. Dasturiy asar, tarixiy hujjat, o'z davrining aybnomasi deb baholaganlar. Xususan, asarni izchil tekshirgan A.Hayitmetov quyidagi xulosalarni bayon etadi: "Navoiy o'zining bu asari bilan o'zbek adabiyoti tarixida ijtimoiy mavzudagi yirik poetik janrga birinchi g'isht qo'ydi... Shuning uchun bu masnaviyni Navoiy lirikasi bilan uning dostonlari o'rtasidagi ko'prik, Navoiy "Xamsa"sining debochasi deb atasak, xato qilmagan bo'lamiz. ... Navoiyning murakkab hayot yo'lini yoritishda, uning ijodiy evolyutsiyasini tahlil etish va belgilashda yorqin she'riy iste'dod bilan yozilgan bu asarga muhim adabiy-tarixiy hujjat sifatida munosib o'rin berish kerak".

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ҳолоти Саййид Ҳасан Ардашер. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Мир-Али-Шир. – Л., 1928; Бертельс Е.Э. Навои. − М., 1948; Шарафиддинов О. Алишер Навоий. – Т., 1972; Абдуллаев В. Навоий Самарқандда. – Т., 1964; Ҳайитметов А. Навоийнинг Саййид Ҳасан Ардашерга шеърий мактуби // Навоий даҳоси. − Т., 1970; Ўзбек адабиёти тарихи. 5 жилдлик. 2-жилд. – Т., 1977; Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. 3-нашри. – Т., 1976; Комилов Н. Саййид Ҳасан Ардашер – комил инсонми? // Тавҳид асрори. – Т., 1999; Султон И. Машҳур мактуб*

// Навоийнинг қалб дафтари. – Т., 1969; Сирожиддинов Ш., Юсупова Д., Давлатов О. Навоийшунослик. – Т., 2018; Алишер Навоий: Қомусий луғат. 1–2-жилдлар. – Т., 2016;

E.O.

MASNAVIYOT – Mavlono Alouddin Kirmoniy qalamiga mansub asar. Xondamir “Makorim ul-axloq”da N.ga bag‘ishlab yozilgan asarlar ro‘yxatini keltirganda Xoja Mas’ud Gulistoniyning “Yusuf va Zulayho”, Burhoniddin Atoullohning “Risolayi qofiya”, Ahliy Sheroziyning “Qasidayi masnu’”, Abdurahmon Jomiyning “Layli va Majnun”, “Xusrav va Shirin” asarlari b-n bir qatorda Alouddin Kirmoniyning “M.”ini ham tilga oladi.

Asli Kirmon viloyatidan bo‘lgan Alouddin Kirmoniy bir umr Makka shahrida yashagan. N. uning tasavvuf arboblaridan ekani va sulukda yuksak maqomlarga erishgani haqida yozadi. Alouddin Kirmoniy bir farz yuzasidan, ya’ni “silayi rahm” (qarindoshlarga mehr-oqibat ko‘rsatish)ni ado etish uchun Hirotga kelgan. Chunki uning opasi, mashhur shoira va tasavvuf arbobi, N.ning “N.M.” asarida avliyo ayollar qatorida zikr etilgan Bibicha Mujjima Hirotda yashar edi. Alouddin Kirmoniy bu yerda bir muncha muddat turib qolgan va Abdurahmon Jomiy hamda N. b-n muloqot qilgan. Keyin yana Makkaga qaytgan.

N. “M.N.”da Alouddin Kirmoniyning “Masnaviyot” asari haqida ma’lumot bergan va quyidagi so‘zlarni bitgan: “Shayx Nizomiy “Xamsa”sining avvalgi kitobi “Maxzan ul-asror” vaznida bir masnaviy aytib yiborib erdi va ko‘p haqoyiq va maorif anda darj qilib erdi. Bu yaqinda Makkadin yana bir masnaviy ham tasavvuf istilohotida “Hadiqa” vaznida aytib yiboribturkim, aning ta’rifidin qalam tili qosirdur. Ahli Tahqiq o‘q-u Erondin so‘ngra qoyilining kamolin ma’lum qilgaylar”.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Т., 2017.*

Q.E.

MASRUK IBN ABRAHA – Habash hukmdorining noyibi. Eramizning VI asrida yashagan. No‘shiravoni Odil laqabi b-n mashhur bo‘lgan Ajam shohi Xusrav I ning zamondoshi. N.ning yozishicha, o‘sha vaqtlarda Yamanda Sayfi Zi-Yazan Himyariy podshohlik qilgan. Masruk binni Abraha uning ustidan g‘alaba qozonib, Sayfi Zi-Yazanni Yamandan quvib chiqargan. U No‘shiravon qoshiga, Ajamga kelgan va yordam so‘ragan. No‘shiravon Yamanga dengiz orqali bir qo‘shin yuborgan va uning ko‘magi b-n Sayfi Zi-Yazan Yaman taxtini qaytarib olgan.

Ma’lumki, VI asrda Yamanda Himyariylar davlati mavjud edi. Habashiston hukmdorlari bu davlatni bo‘ysundirish, Yamanda o‘z hokimiyatini o‘rnatish u-n kurash olib borgan, ularning gumashtalari bir necha marta bu yerga qo‘shin tortib kelgan, ayrimlari g‘alabaga erishib, Yamanda hukmronlik qilgan. Mashhur Abraha ham Makkaga hujum qilishdan oldin Yamanni egallagan va u yerda o‘z hokimiyatini o‘rnatgan edi. U Yaman poytaxtida bir ibodatxona qurdirgan va odamlarning shu yerda ibodat qilishlarini, Makka ziyoratiga bormasliklarini istagan hamda shu maqsadda Ka’bani buzish u-n lashkar b-n Makkaga yurish qilgan. Uning yurishi va abobiy qushlari tomonidan halok etilishi Qur’oni Karimning “Fil” surasida aytib o‘tilgan. N. Masruq va No‘shiravon o‘rtasidagi munosabatlar haqida yozar ekan, Abrahani ham tilga oladi va Qur’ondagi surani eslatib o‘tadi: “Va Abraha ul kishidurkim, Makkani buzgali azimat qilib erdikim, Bori taolo mayri Abobiylni yuborib, ani va cherikini halok qildi. Va “Alam tara kayfa” surasi bizning payg‘ambarg‘akim, xotim ul-anbiyodur, sallallohu alayhi vasallam, aning sha’nida nozil bo‘ldi”.

N.ga ko‘ra, M. shu Abrahaning o‘g‘lidir. Uning ismining M.I.A. deb ko‘rsatilishi shundan dalolat beradi. Lekin ayrim tarixchilarning tadqiqotlarida Masruq ismi emas, balki Himyariylar podshosi Yusuf Asar Yasarning (arab tarixchilari uni Zu Nuvos deb ataydilar) laqabi degan fikr bildirilgan. Ko‘rinadiki, bu o‘rinda qandaydir chalkashlik mavjud.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; История Африки в древних и средневоковых источниках. – М., 1990.*

Q.E.

MAS'UD (XV asr) – shoir, asli shirvonlik. Hirotga kelgach, ham ilm-fan o'rgangan, ham saboq o'rgatgan. Jomiy b-n uchrashish va undan birmuncha muddat tahsil olishga muvaffaq bo'lgan. N. "M.N."da bu ma'lumotlarni bergach, M.ning hozirgi vaqtda (1490) Gavharshodbegim va boshqa madrasalarda mudarrislik qilayotganini bayon etadi. Shoir yuzdan ortiq talabalar undan bahramand bo'lib, hatto uning qoshiga boshqa yurtlardan bilimga tashna talabalar kelib turishini ham qayd etadi.

M. yaxshi axloqlik va darveshvash kishi bo'lgan ekan. N. hikoya qilishicha, bir kun M. u b-n birga peshin namozini o'qiydi. Namoz tugagandan so'ngra M. yana ikki rakaat o'qibdi. Shunda N. mutoyiba qilib debdiki: "Agar xazinachi hisob berishda fozil keltirsa (ortiqcha qoldiq chiqarsa), xiyonatga dalildir". Bu so'z shuhrat tutib ketibdi. M. "Ikki rakaat ortiqcha namoz o'qib, yillar mobaynida uning malomat va pushaymonligidan qutula olmayman", – deb yurar ekan. N. "M.N."da M.ning bir forsiy baytini keltiradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ус-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

S.G'.

MARG'ANIY – Hirot shahrining shimoliy qismida joylashgan mavze. Jo'yi Navro'ziy arig'i b-n Injil soyi o'rtasida joylashgan. Jo'yi Navro'ziy Marg'aniy mavzesining Gozurgoh tog'iga tutashgan tomonidan, Injil soyi esa shahar tomonidan o'rab, oqib o'tadi. Bu mavze o'zining xushhavoligi, suvining shirinligi, tabiatining go'zalligi b-n mashhur bo'lgan. N. ham o'z asarlarida buni ta'kidlab, Marg'aniyni ta'rif va tavsif qilgan. Jumladan, "V." asarida shunday yozgan: "Ul yerning havosi ruhparvarlikda jannat havosidin nishona aytur va yeli hayotbaxshlikda firdavs nasimidin namuna ko'rguzur". Shuningdek, "H.A."ning Xuroson va Hirotga bag'ishlangan o'n to'qqizincha maqolatida u Marg'aniyning ikki soyini vasf qilib, quyidagi satrlarni bitgan:

Haddi shimoliysi sori ikki nahr,
Ul ikkidin xurram-u serob shahr.

Ikkisida ta'mi zuloli hayot,
Ravzadag'i to'rtg'a andin uyot.

Xizr suyidek anga ravshan zulol,
Nutqi Masih onda nasimi shamol.

Marg'aniy mavzesida N.ga qarashli hovli va saroy ham bo'lgan. Shuningdek, N. tomonidan barpo etilgan "Ixlosiya" madrasasi va "Xalosiya" xonaqohi ham Marg'aniy mahallasida joylashgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Вақфия. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Бабахаджаев М. Герат эпохи Алишера Навои. – Т., 1969; Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. – Т., 1996; Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Т., 1967.*

Q.E.

MARG'ANIY KO'SHKI – Marg'aniy mahallasida joylashgan, qadimgi zamonda qurilgan bino. N. hovlisining janubi-g'arbiy tomonida M.K. bo'lgan. Ikki qavatdan iborat ushbu imoratning asosi toshdan, devori xom g'ishtdan edi. N. Marg'aniy mavzesida o'z hovlisini qurgan vaqtda ushbu ko'shk xarob ahvolda bo'lib, uni buzib tashlash, o'rniga ko'rkam, ayni paytda xalqqa foydali binolar qurish zarurati yuzaga kelgan edi.

M.K.ning o'sha vaqtdagi dilni xira qiluvchi ko'rinishini N. shunday tasvirlagan:

Yiqib ayvonini sayli zalolat,
Yog‘ib devoridin gardi malolat.

Qorong‘u sahni andoq shomi dayjur,
Ki xurshed anda kirsa topmag‘ay nur.

N. bu ko‘shkni buzib tashlashni buyurgan va uning o‘rniga madrasa (“Ixlosiya”) va masjid qurdirgan.

M.K. ayrim manbalarda “Mamarri g‘aniy” tarzida atalgan. Jumladan, “Zafarnoma”da Amir Temur qo‘shinlari Hirotni qamal qilganda, aynan ana shu ko‘shk joylashgan tomondan yorib kirgan va shaharni egallagan.

Ad.: *Алишер Навоий. Вақфия. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985; Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. – Т., 1996; Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Т., 1967.*

Q.E.

MARG‘ANIY HOVLISI – N.ning Marg‘aniy mavzesida joylashgan hovlisi va saroyi. Hijriy 881 (milodiy 1476)-y.da Sulton Husayn Boyqaro N.ga hovli va saroy qurish u-n ushbu mahalladan yer ajratib bergan va N. bu yerda o‘zi u-n turar joy qurgan. M.H.ning umumiy maydoni o‘ttiz jarib, ya’ni taxminan, olti gektarni tashkil etadi.

Shoir uning atrofini devor b-n o‘rab, ichiga turli daraxtlar va anvoyi gullar ektirgan, bog‘lar, gulzorlar barpo etgan hamda shukuhli bir imorat qurdirgan. Shu tariqa o‘zi u-n go‘zal va so‘lim bir maskan yaratgan. M.H.sining bir zamonlarda ta’rifi mashhur bo‘lgan. Sulton Husayn Boyqaro ham bu yerga tez-tez kelib turgan. N. faqat hovli ichkarisini obod qilish b-n qanoatlanmay, uning atrofida ham bunyodkorlik ishlarini amalga oshirgan va o‘zining mashhur madrasasi “Ixlosiya”ni hamda “Xalosiya” xonaqosini qurdirgan. Shuningdek, madrasa yonida masjid va “Dor ulhuffoz” deb ataluvchi gumbaz ham bino etgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Вақфия. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. – Т., 1996; Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Т., 1967.*

Q.E.

MARYAM – islomiyatdan avval o‘tgan Iso Masihning onasi. Qur’oni Karimda “Maryam” surasi mavjud. Qur’onning turli suralarida M. ismi 34 marta uchraydi. Imronning qizi M. pokiza va taqvoli ayol bo‘lgan. Iso (a.s.) payg‘ambarning onasi, nasroniylikdagi Mariyaga to‘g‘ri keladi. M.ning otasi Imron ham “Bani Isroil” qavmi ichida eng obro‘li kishilardan bo‘lgan. N. ning yozishicha, Imronning xotini Hanna (ayrim manbalarda Hayfa) befarzand bo‘lgan va Allohga iltijo qilib, farzand ato etishni so‘ragan. Agar farzandli bo‘lsa, uni Alloh yo‘lida Baytul Maqdis xizmatiga nazr qilishini niyat qilgan. N.ga ko‘ra, Imron serfarzand bo‘lgan, Zakariyo (a.s.) da farzand bo‘lmagan. Imron buning shukronasiga yana farzandli bo‘lsa, Baytul-Muqaddasga xizmatkor bo‘lishini nazr qiladi. Zakariyo (a.s.) ga uning tarbiyasini topshiradi.

Alloh taolo M.ga Jabroil (a.s.)ni yuboradi. Jabroil (a.s.) unga homilador bo‘lishi va solih bir farzand ko‘rishi haqida bashorat beradi. M. bokira va ma’suma qiz bo‘lsa ham, taajjublansa ham, Alloh taolo Jabroil (a.s.) farishta orqali o‘sha pok jasadga o‘z ruhidan “puflashi” natijasida, Iso (a.s.)ni paydo qiladi.

M. obrazi N. she’riyatida muqaddas ona, poklik, iffat va ayol sha’nini ulug‘lovchi timsol sifatida qo‘llanilgan. Shoir “Maryam ipi” va “Masih ignasi” timsollarini birga qo‘llash orqali o‘z iztiroblarini hamda ma’shuqining tashqi va ichki go‘zalligini yanada jonli, bo‘rttirib tasvirlashga erishadi:

Ko‘ngulda xori g‘amidur – o‘larman, ey Maryam,
Masih ignasi birla chekay desang tikanin.

Masih ignasi Maryam igirgon ip bila go‘yo
Chigilib, egniga jonbaxshlig‘ to‘ni tikilibdur

Tikmagaymen tig‘i zaxmin o‘lsam ul ozor ila,
Bo‘lsa Iso ignasi Maryam igirgan tor ila.

N.ning M. timsoli vositasida yaratgan teran baytlarini tahlil va talqin qilish shoirning mahorat sirlarini ochishga xizmat qiladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик. 8 жилд. – Т., 2011; Ислом. Энциклопедия. – Т., 2004; Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Ҳадис ва ҳаёт. 20-жуз. Анбиёлар қиссаси. – Т., 2007.*

S.R.

MASSON Mixail Yevgenyevich (1897, Sankt-Peterburg – 1981, Toshkent) – sharqshunos, tarixchi, arxeolog. Arxeologiya fanlari d-ri (1936), prof. (1945). Turkmaniston Fanlar akademiyasining akademigi (1951). O‘rta Osiyoning Kushon davri va O‘rta asrlar tarixi bo‘yicha yirik tadqiqotlar muallifi. Ko‘p yillar davomida O‘zMU (TashGU)da arxeologiya kafedrasining mudiri bo‘lib ishlagan (1940–1968). M.M.Y. Janubiy Sug‘dning arxeologik-topografik vaziyati bo‘yicha qator tadqiqotlar muallifidir. 1948-y.da N. tavalludining 500 yilligi munosabati b-n tayorlangan “Ulug‘ o‘zbek shoiri” to‘plamida M.ning “Hirotning XV asrdagi tarixiy topografiyasiga doir” nomli ilmiy maqolasi nashr qilingan. Maqolada Sharqning o‘rta asrlardagi mashhur shaharlaridan bo‘lgan Hirotning N. davri topografiyasi manzaralari yoritilgan.

M.M.Y.ning mazkur maqolasini Hirotning tarixiy topografiyasi haqidagi muhim hujjat sifatida baholash mumkin. Hirotning tarixiy topografiyasi haqida “Alisher Navoiy” (1946) to‘plamida A.M.Belenitskiyning ham tadqiqotlari mavjud. M.M.Y. o‘z maqolasini A.M.Belenitskiyning so‘z borayotgan tadqiqoti tanqidiga bag‘ishlaydi. Muallif shu maqolaga tuzatishlar va qo‘shimchalar qilishni ko‘zda tutgan tadqiqotini Hirot shahrining paydo bo‘lishi haqidagi ma’lumotlardan boshlaydi. Shu maqsadda tarixiy manbalardan Hirot haqidagi haqiqat va afsonalarni o‘rganib chiqqan M.M.Y. shaharning N. davrigacha bo‘lgan taraqqiyot yo‘lini keng yoritib beradi. Shu sirada u A.M.Belenitskiyning qator fikrlarini ma’qullaydi, ayni paytda ularni to‘ldiradi. O‘z ilovalari b-n shahar toponimikasi haqidagi tasavvurni boyitadi.

Hikoya qilinishicha, qal’a va minoralari devorlar b-n o‘rab olingan bu shahar Temurning o‘z hokimiyatini barpo etish va mustahkamlash yillarida ma’lum vaqt o‘z qiyofasini yo‘qotgan. Temur keyinchalik Hirotning shahar sifatidagi ahamiyatini idrok etib, uni tiklashga va mustahkamlashga kirishgan edi. Bu ishlar Shohrux va Husayn Boyqaro hukmronliklari davrida qayta yo‘lga qo‘yildi. Ixtiyoriddin qal’asi yangidan qurildi va ilgarigidan ko‘ra kengaytirildi. Ark devorlari balandga ko‘tarildi. Hirotda bunyod etilgan minoralar, masjid va madrasalar, mudofaa istehkomlarini Bobur ham diqqatga sazovor joylar, deb aytganligini eslaydi muallif.

M.M.Y. Hirot shahristonining XV asrning ikkinchi yarmiga kelib, ko‘p jihatdan ko‘rkamlashib, yangi bir joziba baxsh etib borishida N.ning katta tashabbuskorlik faoliyati muhim rol o‘ynagan edi, deb ta’kidlaydi. Shu sirada Hirot Jome’sining alohida e’tibor b-n qayta tiklanishi, peshtoqlar tomining yopilishi, ravoq ustunlarining bir-biridan ajralib ketmasligi u-n maqsuraxonaning har ikki tomoniga ikkita yondosh imorat va baland ayvonlar qurilishida N.ning o‘z mablag‘i b-n ishtirok etishi haqidagi ma’lumotlar qiziqarlidir. N. qurilishda o‘zi ham qatnashib, bu katta xayrli ishga hissa qo‘shgan edi.

M.M.Y. O‘rta Osiyo va Xuroson shaharlari tarixiy toponimikasini sinchkovlik b-n o‘rgangan olimdir. Shu sirada uning Hirot tarixiy toponimikasiga bag‘ishlangan maqolasi N. davri Hirot qurilishi manzarlarini yoritish jihatidan alohida ahamiyatga ega.

Ad.: *Алишер Навоий. Вақфия. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Массон М.Е. Ҳиротнинг XV асрдаги тарихий топографиясига доир. Улуғ ўзбек шоири. – Т., 1948; Овезов М.Д. Академик АН Туркменской Массон, Ашхабад. 1970.*

S.O‘.

MASX BO‘LISH – Qiyofaning o‘zgarishi, boshqa qiyofaga kirish. Tanosux esa, ruhning ko‘chishi, deb talqin qilinadi. N. asarlarida bu hodisa b-n bog‘liq lavhalar mavjud. Jumladan, “T.M.A.” asarida Buxtunnasr haqida (Bu shaxs haqida Buxtunnasr maqolasiga qarang) ma’lumot berar ekan, N. shunday yozadi: “Va Buxtunnasrki... ikki qatla Bayt ul-Maqdisni yer bila tuzatti va Doniyol bila Uzayr (a.s.)ni asir qildi. Bu jihatdin debdurlarkim, bir yil yo uch yil masx bo‘ldi”. Bu o‘rinda N. mazkur hodisaga to‘la izoh bermagan, Buxtunnasrning masx bo‘lishi tufayli qanday qiyofaga kirgani, qay tarzda o‘zgargani haqida hech narsa demaydi. Lekin boshqa manbalarda uning tashqi ko‘rinishida hayvonlarga xos ayrim xususiyatlar paydo bo‘lgani, hayvonlarga xos harakatlar qilgani, o‘t-o‘lanlarni yegani haqida ayrim ma’lumotlar bor.

Olimlar bu hodisani ilmiy nuqtayi nazardan izohlaydilar. Ularning fikricha, bu ruhiy kasallik bo‘lib, unga chalingan kishi o‘zini biron bir hayvon sifatida tasavvur etadi, o‘sha hayvonga xos harakatlar va qiliqlarni qila boshlaydi. Tibbiyot ilmida ushbu kasallik likantropiya deb ataladi.

Diniy adabiyotlarda M.B. insonga og‘ir gunohi u-n berilgan og‘ir jazo sifatida talqin qilinadi.

M.B. b-n bog‘liq yana bir lavha N.ning “T.A.H.” asaridan o‘rin olgan. Unda bayon qilinishicha, bir safar chog‘ida yegulik bo‘lmaganligi sababli Iso (a.s.) Bani Isroilning iltimosi b-n Tangridan yegulik so‘rab duo qilgan va Alloh osmondan moida yuborgan. U yeb to‘ygan odamlar shukr qilish o‘rniga “Bu moida osmondan kelayotgani yo‘q, Iso sehr qilmoqda”, – deganlar. Kufroni ne’mat qilganliklari sababli, Tangri taolo ularni to‘ng‘izlarga aylantirib qo‘ygan. Asarda bu shunday tasvirlanadi: “Har oyinakim, Tangri taolo kufroni ne’mat qilganlarni va’da qilg‘on dastur bila to‘ng‘iz shakli bila o‘rinlaridin qo‘pordi. Va ul to‘ng‘izlar mazbalalarda kezib, najosatlarni yer edilar. Iso (a.s.) qatig‘a kirib, ko‘zlaridin yosh borib, boshlarin yerga qo‘yarlar erdi. To uch kundin so‘ngra aqbah vujuh bila adam yo‘lig‘a azimat qildilar... Ul jamoat masx bo‘lgandin so‘ngra Iso (a.s) yonib Bayt ul-Maqdisqa keldi”.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи мулки ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

Q.E.

MAS’UD QUMIY – forsiy tilda ijod qilgan shoir. XV asrning oxirlarida Hirotda vafot etgan. Asli Qum viloyatidan bo‘lgan. Qum Ajam Iroqiga mansub hisoblanadi. Shuning uchun M.Q. ni Xoja Mas’ud Iroqiy, deb ham ataydilar. Qum Ajam Iroqining qadimiy shaharlaridan biri bo‘lib, islomga qadar ham mavjud edi. Shaharning nomi turkiy “qum” so‘zidan olingan. U qumli dasht hududida joylashgani sababli shunday atalgan. Qum qadimdan shialikning yirik markazlaridan biri sifatida e’tirof etilgan va hozir ham shu maqomni saqlab keladi. Shu b-n birga bu yerda diniy va boshqa ilmlar rivojlangan. M.Q. shu yerda tug‘ilib, tahsil olgan. Uning Hirotga qachon kelgani ma’lum emas, lekin N.ning “ul viloyatning ulug‘laridindur” deb yozishiga qaraganda, uning Xurosonga kelishi ijodkor sifatida shakllanib tanilgan vaqtida yuz bergan.

M.Q. sohibdevon shoir bo‘lgan. N. uning devoni xalq orasida mashhur ekani haqida yozadi. Shoirning adabiy merosi, asosan, g‘azallar va masnaviylardan iborat. Uning “Yusuf va Zulayxo” asari N.ga bag‘ishlangan. N. bu asarni “M.N.”da tilga olgan, shuningdek, “T.A.H.”ning Yusuf (a.s.)ga bag‘ishlangan qismida ham unga to‘xtalib o‘tgan hamda shu mavzuda qalam teb-

ratgan Firdavsiy Tusiy, mavlono Abdurahmon Jomiy singari buyuk ijodkorlar qatorida M.Q. ni ham eslab, asariga yuksak baho bergan: “Ul jumladin biri Firdavsiy Tusiy va yana biri hazrat maxdumiy Mavlono Nuriddin Abdurahmon al-Jomiy navarallohu marqadahukim, andoqkim, Yusuf (a.s.)ning husni va jamoli ta’rifdin mustag‘niydur, alarning dag‘i fazl va kamolig‘a vasf hojat ermas. Yana Xoja Mas’ud Iroqiy ham nazm qilibdur va balog‘atning dodin beribdur”. M.Q. munozara janrida ham ijod qilgan. N. “M.N.”da uning “Shams va qamar”, “Tig‘ va qalam” nomli munozaralar yozganini qayd qiladi. M.Q. N. b-n yaqin bo‘lgan. N.ning “Iroqtinkim, Xurosong‘a keldi va faqir bila musohib erdi”, degan so‘zlari shundan dalolat beradi. N.ning xabar berishicha, M.Q.ga nazmda Sulton Husayn hukmronligiga bag‘ishlangan tarixiy asar yozish buyurilgan. Bundan M.Q.ning podshohning ham nazariga tushgan shoir ekani ma’lum bo‘ladi. Unga buyurilgan tarixiy asarga kelsak, uning taqdiri ma’lum emas. Aftidan, shoir uni tamomlashga ulgurmay vafot etgan. N. tazkirasida M.Q. qalamiga mansub ikki forscha bayt keltirilgan. M.Q. Hirotdagi Piri Sesadsola mozorida dafn etilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

Q.E.

MATLA’ (ar. − chiqish joyi (quyosh, oy, yulduzning), boshlanish, mabda’) – g‘azal yoki qasidaning har ikki misrasi o‘zaro qofiyalanadigan birinchi bayt. O‘quvchi yoki eshituvchini o‘ziga tortishi, she’rning davomini o‘qishga rag‘bat uyg‘otishi u-n shoirlar M.ning shaklan go‘zal, mazmunan teran, badiiy jihatdan yuksak chiqishiga katta e’tibor berganlar. Betakror so‘z va iboralar, favqulodda va ohorli tashbehlar, nozik taxayyul va daqiq fikrlar b-n uni har jihatdan mukammal qilishga − husni matla’ (q.) darajasiga ko‘tarishga intilganlar. Raduyoniyning yozishicha, ilk baytning shakl va mazmun jihatidan go‘zal bo‘lishi balog‘at qoidalaridan hisoblanadi. Bunday purma’no va purlatofat bayt o‘quvchini she’rning asosiy g‘oyasini butun teranligi va nozikligi b-n tushunishga tayyorlaydi va husni matla’ nomini oladi. Yosh Alisherning:

Orazin yopqoch, ko‘zumdin
sochilur har lahza yosh,
Bo‘ylakim paydo bo‘lur yulduz,
nihon bo‘lg‘och quyosh, −

M.si Lutfiyni hayajonga solib, o‘zining 12 ming misradan iborat butun merosini unga almashishga rozi bo‘lganligi bejiz emas. Odatda, M. qiyomiga yetmay turib, she’r yozishga o‘tirilmagan. Tazkiralarda shoir mahoratining darajasini ko‘rsatish maqsadida, asosan, g‘azal yoki qasidalaridan M.lar keltirilishi bejiz emas. “M.N.” ham bundan mustasno emas.

M.da g‘azal yoki qasidada aytilmoqchi bo‘lgan fikr, ifodalanajak ma’no o‘rtaga tashlanib, keyingi baytlarda rivojlantirilib, asoslanib boriladi va M.da xulosalanadi. M-n, N.ning:

Dahr bog‘i aro ko‘p istamagil aysh-u tarab −
Kim, guli shu’layi g‘am, g‘unchasidir xori taab, −

bayti b-n boshlanadigan g‘azali dunyo tanqidiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda “Bu dunyo bog‘ida ko‘p ham aysh-u safoga berilma: uning ko‘zlaringni yashnatuvchi gullari aslida g‘am shu’lasi, qalbingga quvonch bag‘ishlovchi g‘unchalari mashaqqat tikanidir”, – degan fikr ilgari surilib, keyingi baytlarda dunyoning go‘zalligi, boyligi, ne’matlari aslida tuzoq bo‘lib, insonni yo‘ldan urishi haqidagi betakror obrazli mushohadalar b-n davom etadi va uni tark etish kerakligi haqidagi xulosa b-n nihoyasiga yetadi:

Chun Navoiy ko‘zi bog‘liq qush erur olam aro,
Bu chamandin anga uchmog‘ni nasib et, yo Rab.

Badiiy yuksakligidan tatabbu’ qilish qiyin bo‘lgan M.lar bo‘lgan. M-n, Lutfiy umrining oxi-

rida bitgan “oftob” radifli forsiy g‘azaliga ko‘pchilik shoirlar tatabbu’ qilganlar, lekin M.ni hech biri unga yetkazib yozolmagan. “Aftad” radifli forsiy M.sini tugatolmagan Lutfiy uni Jomiy davom ettirib, devoniga kiritishini vasiyat qilgan. N. ham Mirzobekning:

Ko‘zung ne balo qaro bo‘luptur −
Kim, jonga qaro balo bo‘luptur, −

M.sini davom ettirib, to‘liq g‘azalga aylantirgani ma’lum. U Mavlono Sohibning:

Ko‘kragimdur subhning pirohanidin chokroq,
Kiprigim shabnam to‘kulg‘on
sabzadin namnokroq, −

M.si asosida ham g‘azal yaratgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ус-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Ж 2. – Д., 1989; Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т., 2006; Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг рус-ўзбекча изоҳли луғати. – Т., 1983; Қуронов Д. ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2010.*

E.O.

“MATLA’YI SA’DAYN VA MAJMAYI BAHRAYN” (“Ikki saodatli yulduzning va ikki dengizning qo‘shilgan joyi”) – Abdurazzoq Samarqandiyning temuriylar davriga oid eng muhim yozma manbalardan bo‘lgan asari. Uning o‘zbek tiliga tarjima qilinib, nashr etilayotgan qismida Amir Temur vafotidan to Husayn Boyqaro humkronligi boshlarigacha bo‘lgan davrdagi (1405–1470) temuriylar davlati hududi, ayniqsa, Xuroson va Movarounnahrda ro‘y bergan asosiy tarixiy solnoma tarzida yilma-yil bayon qilingan. Abdurazzoq Samarqandiy o‘sha davrdagi madaniy hayot hamda temuriy hukmdor va malikalarning bunyodkorlik faoliyatini tasvirlashga katta ahamiyat bergan. “M.S.V.M.B.” (“Ikki saodatli yulduzning va ikki dengizning qo‘shilish joyi”) N. nomi zikr qilingan ilk tarixiy manbadir. Unga ko‘ra, N. Hirot raiyatlarining ahvolini o‘rganish u-n keladi. U raiyatni tinchlantirish u-n keltirgan nishonni juma kuni minbar tepasida o‘qiydilar. Amir Alisher qaytib ketganidan keyin Mirzo Sulton Husayn Xoja Nizomiddinni bandga oldiradi.

Ad.: *Матлаъи саъдайн ва мажмаи баҳрайн (Икки саодатли юлдузнинг ва икки денгизнинг қўшилган жойи). Форс тилидан ўзбек тилига академик Асомиддин Ўринбоев таржимаси. – Т., 2008.*

B.R.

MATLUB – talab so‘zidan olingan bo‘lib, lug‘atlarda talab etilgan, orzu etilgan narsa ma’nosida keladi. Haqiqatan, N. asarlarida ham mazkur ma’noda qo‘llangan o‘rinlar mavjud. Faqat bunda aksariyat ma’naviy istaklar nazarda tutiladi. “N.M.”da o‘qiymiz: “Shayx Najmuddin Abdulloh b. Isfahoniyning shayxi Ajam bilodida, anga deb erdiki, bot bo‘lg‘ayki, Misr bilodida qutb bila muloqot qilg‘aysen. Qutb talabig‘a chiqti. Va yo‘lda haromilar dedilar: josusdur va bog‘lab asradilar. Va debdurki, nogoh ko‘rdumki, bir pir mening ustumga tushti, andoqki, qarchig‘ay bir sayd ustiga. Va meni bandlardin ochib, xalos qildi. Va dedi: qo‘p, ey Abdullohki, sening matlubung mendurmen. Pas, Misrg‘acha bordim, hech matlubumni tanimadim va bilmadimki, qaydadur, to ulki bir kun dedilarki, Shayx Abulabbos Mursiy kelibdur. Jam’i fuqaro dedilarki, keling, borali va anga salom qilali! Chun ko‘zum anga tushti, tanidimki, ham-ul pirdurki, meni yeshib erdi”. Darhaqiqat, murshidi komilni izlab yo‘lga chiqqan solik u-n haqiqiy M. Alloh taolodir. “L.T.” dostonida Abu Said Harrozning ma’naviy rutbasi, unga Allohning lutfi marhamatini ko‘rsatish orqali tariqat maqom-u hollarini izohlaydi. Makkada bir kun avliyoullohlar visol istab duo qilishadi. Biroq Har roz hazratlari vahdat mayidan behush

edi. Tavhid vodiysida bo‘lgan shu onlarda uning tilidan shu so‘zlarni eshitishadi:

Kim: Ilohiy har ne xalq aylar talab,
Men topibmen chekmayin ranj-u taab.

Senki, el matlubisen – men topmisham,
Istamakdin lojaram ko‘z yopmisham.

Sendin ayru chun emasmen bir nafas,
Lag‘v erur topqonni qilmog‘lig‘ havas.

Men chu vasling birla topmishmen kushod,
Bu talab ahlig‘a ham bergil murod.

So‘fiylar nazdida M. Robb ul-olamin ekanligi valiylar tilidan ham tazkirada keltiriladi: “Shayx Abubakr b. Abdulloh Tusiy Nassoj (q.s.) dan so‘rdilarki, M. diydorin ne bila ko‘rsa bo‘lur? Dediki, sidq ko‘zi bila ko‘rsa bo‘lur, talab ko‘zgusida! Va ham ul debdurki, suv tasavvuri suvsizlig‘ni daf’ qilmas va o‘t fikrati harorat bag‘ishlamas va talab da’vosi M.g‘a yetkurmas”. Sidq tariqatda so‘nggi maqomlardan biridir. M.ga yetmoq u-n talab da’vosining o‘zi kam. Bunda, albatta, sidq-u sadoqat kerak. M. vasliga erishmoq u-n o‘zlikdan voz kechish talab qilinadi. Shu bois M. haqida so‘z ketarkan, o‘zlikdan voz kechmoq masalasi o‘rtaga tashlanadi. Zero, M. deganda yor, ma’shuqa, Alloh nazarda tutilarkan, visol u-n hijob nafsdir:

Ketur, soqiy, aningdek mayki, kul
qilg‘ay vujudumni,
Ki o‘zluk pardasi matlub ruxsorig‘a
sotirdur.

Bani bashar chin M.ni topmasa, dunyoga bog‘lanib qoladi, nafsini ham tanimaydi. N. buni mahorat b-n ifodalaydi:

O‘yladurkim, sotibon Yusufni olg‘ay
siymi qalb,
Kimki matlubni qo‘yub, mayl etsa
dunyo johig‘a.

Aslida lirik qahramonlarni ularning ma’naviy sayrlaridagi darajalari b-n birgalikda talqin qilmoq joiz. Talab vodiysidagi tolibning yori M.dir. Ishq vodiysida esa oshiqning istagi ma’shuq bo‘lsa, ma’rifat vodiysidagi orifning qalbi ma’rufdadir:

O‘yla Layli ishqida mag‘lub edi,
Tolib ul go‘yo-yu bu matlub edi.

Demak, N. asarlarida M. yor, murshidi komil, Rasulullоh (s.a.v.) va Allohni tamsil etuvchi istiloh va obrazlarda qo‘llaniladi.

Ad.: *Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Т., 1983; Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005; Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. – Душанбе, 1987.*

Z.R.

MATUSHLAX IBN AXNUX – N.ning yozishicha, Idris (a.s.)ning o‘g‘lidir. Uning zurriyotlari ko‘p bo‘lgan. M.I.A. zamonida otlar ham ko‘payib ketgan.

M.I.A. oqil kishi bo‘lgan, doim farzandlarini lashkar b-n “Qobil avlodi ustiga” yuborgan va ularni nest-nobud qigan. “Sobiy aning o‘g‘li erdikim, holo bir mashhur mazhablari bor”.

M.I.A. payg‘ambar bo‘lmagan, balki dono podshoh bo‘lgan. Uning Sobiy ismli o‘g‘li bo‘lib, N. yozishicha, mashhur sobiiylik diniga asos solgan. Qur’oni Karimning “Baqara” surasining 62, “Haj” surasining 17-oyatlarida sobiiylar haqida aytilgan. Sobiiylar Allohga ishonadigan, lekin biror shariatga amal qilmaydigan toifalar bo‘lgan.

N. M.I.A.ning 980 ga kirgani, ba’zilarga ko‘ra 1000 dan o‘tganini qayd etadi. Umrining oxirida Malik Mulko degan o‘g‘lini valiahd qilgan. Ammo o‘g‘li 170 ga kirib o‘zidan oldin vafot etadi. O‘g‘lidan keyin M.I.A. ham dunyodan ko‘z yumadi.

Gar Matushlax va gar Malik o‘lsun var Nuh,
Ichmak kerak, albatta, fano jomidin sabuh.

Ad.: *Алишер Навоий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.; Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Ҳадис ва ҳаёт. 20-жуз. Анбиёлар қиссаси. – Т., 2007; Пайғамбарлар тарихи (Исломият тарихи). – Т., 2014.*

S.R.



“MAXZAN UL-ASROR” (“Sirlar xazinasi”) – mashhur ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy “Xamsa”sining birinchi dostoni. Buyuk mutasavvif adib Hakim Sanoiyning “Hadiqat ul-haqiqa” (“Haqiqat bog‘i”) dostoniga nazira tarzida bitilgan bo‘lsa-da, u kabi hafif bahrida emas, balki sare’i musaddasi matviyi makshuf (mavquf) vazni (muftailun muftailun foilun (– V V – \ – V V – \ – V –)da yaratilgan bo‘lib, 2264 bayt (4528 misra)dan iborat. U ijtimoiy-falsafiy, axloqiy-ta’limiy doston bo‘lib, so‘fiyona ruhdan xoli emas. Asar yagona syujet chizig‘iga ega emas. U 59 bob: 18 muqaddima, 20 maqolat va ularga ilova tarzida keltirilgan 20 hikoyat va xotimadan iborat. Ular: ikki munojot, Payg‘ambar vasfi, me’roj ta’rifi, to‘rt na’t, Bahromshoh madhi, o‘zining ta’zim adosidagi so‘zi, asarning maqomi va martabasi haqidagi fikri, so‘z fazilati bayoni, nazmning nasrdan afzalligi, ikki xilvat va ularning ikki samarasi, tungi ishrat xususida, yigirmatadan maqolat va hikoyat va xotima. Muqaddima qismlar garchi Sharq dostonchiligi an’analariga ergashib yozilgan bo‘lsa-da, so‘z fazilati, nazm va nasr qiyosiga bag‘ishlangan boblar hamda ikki xilvatda muallifning dasturilamal xarakteridagi fikr va qarashlari ilgari surilgan. Maqolatlarda esa u insonning yaratilishi, hukmdorlik va adl-u insof, dunyo hodisalari, shoh va xalq munosabati, keksalik va yoshlik, insoniylik fazilatlari, yaratilish mohiyati, dunyoning bevafoligi, uning mazammati, tarkidunyo va tirikchilik tashvishlaridan najot topish, oxirzamon alomatlari, g‘aflat tanqidi, hasadgo‘ylar malomati, maslak yo‘lida sobitlik, ibodat-u tajrid, munofiqlarni yozg‘irish, oxirat b-n yuzlashish, zamon ahlining beadabligi kabi mavzularda bahs yuritadi. Shoir avval mavzuga oid o‘z fikr-u qarashlarini bayon etib, keyin so‘zlarining tasdig‘i u-n hikoyat keltiradi. Shu tariqa, muallif o‘quvchini o‘z sirlar xazinasiga “taklif etar ekan, uni jamiyat va inson hayotining biri oshkor, biri pinhon sirlari bilan yaqinroq tanishtirishni maqsad qilib qo‘yadi. Binobarin, “Maxzan ul-asror”ni shoirning hayotiy kuzatishlari asosidagi falsafiy, ijtimoiy va axloqiy qarashlarining badiiy majmuasi deyish mumkin”.

“M.A.” – Nizomiyning Alloh – Olam – Odam munosabatlari borasidagi ko‘p yillik kuzatishlari va tafakkuri natijasida anglaganlari, hayot mohiyati va inson umrining mazmuni xususida o‘ylaganlari, ideal jamiyat va komil inson haqida istaganlarining badiiy obraz va timsollar vositasidagi nazmiy talqinidir.

Inson – hayot – jamiyat haqidagi qarashlari darj etilgan ko‘ngil daftaridir.

Ayni jihatdan, “M.A.” – shoirning o‘ziga xos hayotnomasi, avlodlarga esa yo‘riqnomasidir.

Dunyoning barcha donishmandlari kabi Nizomiyni ham dunyoning mohiyati, hayotning mazmuni, insonning jamiyatdagi o‘rni, turli insoniy fazilat va illatlar kabi azaliy va abadiy muammolar qiziqtirgan, qiynagan, tafakkur ummoniga cho‘mdirgan. Ayni hayotiy masalalar, odamlararo munosabatlar, inson xilqatining turfa tuslanish-u turlanishlari to‘g‘risidagi qarashlarini turli mavzularga ajratib, doston tuzilishini shakllantiradi. Diqqat qilinsa, adolatli jamiyat, odil hukmdor, komil inson tushunchalari shoir qarashlarining markazida turadi. Bu yo‘lda asosiy to‘siq bo‘lgan dunyo va insoniy illatlar tanqidi dostonda muhim o‘rin tutadi. Asarda asosiy e’tibor dunyo mazammati va insoniy illatlar tanqidiga yo‘naltirilganligi bejiz emas. Yigirma maqolatdan beshtasi, ya’ni to‘rtdan

biri dunyoga bag‘ishlangani bejiz emas: “Dunyo hodisalari xususida” (3-maqolat), “Dunyo tashvishlaridan qutulish bayonida” (9-maqolat), “Dunyoning bevafoligi bayonida” (11-maqolat), “Tuproq manzili bo‘lmish dunyoga vido aytish” (12-maqolat), “Dunyoga ta’na-malomat yog‘dirish” (13-maqolat). Insonning yaratilishi, tabiati, fazilat va illatlari bilan esa o‘n uch maqolat – asarning teng yarmi bog‘liq deyish mumkin: “Odam Atoning yaratilishi xususida” (1-maqolat), “Keksalik vasfida” (5-maqolat), “Mavjudot e’tibori bayonida” (6-maqolat), “Odamiylikning butun xilqatlardan ustunligi” (7-maqolat), “Yaratilish bayonida” (8-maqolat), “Oxirzamon alomatlari bayonida” (10-maqolat), “G‘aflatga malomat yog‘dirish” (14-maqolat), “Hasadgo‘ylarga malomat yog‘dirish” (15-maqolat), “Maslak yo‘lida jadal olg‘a bosish bayonida” (16-maqolat), “Ibodat-u tajrid bayonida” (17-maqolat), “Munofiqlarga malomat yog‘dirish” (18-maqolat), “Oxirat ila yuzlashuv bayonida” (19-maqolat), “Zamondoshlarning beadabligi bayonida” (20-maqolat). Aslida qolgan barcha boblar ham u yoki bu darajada inson b-n bog‘liq. Shoh–xalq–jamiyat–adolat masalalari ham dostonning tayanch qismlaridan hisoblanadi: “Insof, adolat himoyasida shohga pand-u nasihat” (2-maqolat), “Podshoning raiyatga husni rioyati bayonida” (4-maqolat). Lekin “Noumid podsho va uni Alloh afv etgani hikoyati” (1-maqolat), “Sulaymon va dehqon hikoyati” (3-maqolat), “Faridun va ohu hikoyati” (7-maqolat), “Zolim podsho va rostgo‘y kishi hikoyati” (14-maqolat), “Yosh shahzoda va uning keksa dushmanlari hikoyati” (15-maqolat), “Jamshid va uning xos mahrami hikoyati” (18-maqolat), “Xorun ar-Rashid va sartarosh hikoyati” (19-maqolat) kabi hikoyatlar boshqa maqolatlar ham ayni mavzudan ayri emasligini ko‘rsatadi. Shu b-n birga, muqaddima boblar hamda “Odam Atoning yaratilishi xususida” (1-maqolat), “Yaratilish bayonida” (8-maqolat), “Oxirzamon alomatlari bayonida” (10-maqolat), “Ibodatu tajrid bayonida” (17-maqolat), “Oxirat ila yuzlashuv bayonida” (19-maqolat) va dunyo bilan bog‘liq maqolatlar, “Noumid podshoh va uni Alloh afv etgani hikoyati” (1-maqolat), “Tavbabuzar zohid hikoyati” (9-maqolat), “Iso alayhissalom hikoyati” (10-maqolat), “Sohibnazar mo‘bad hikoyati” (11-maqolat), “Hoji va so‘fiy hikoyati” (13-maqolat), “Pir va murid hikoyati” (17-maqolat) kabi hikoyatlar asarning diniy-tasavvufiy asoslari ham mustahkamligidan dalolat beradi. “Nizomiy hayotda nima muqaddas-u, nima fahsh, inson nima uchun intilmog‘i, nimani rad qilmog‘i kerak degan savollarni o‘rtaga qo‘yar ekan bu savollarga javob berishda Qur’on suralariga murojaat qiladi, hadislarni asos qilib oladi, o‘zining uzoq yillik hayotiy kuzatishlaridan kelib chiqadi”.

O‘z “X.”sining besh dostonini besh buyuk salafi (Nizomiy, Xusrav, Xoju, Ashraf, Jomiy) ga tatabbu’ sifatida yaratgan N. “H.A.”ni aynan “Maxzan ul-asror”ga javob tariqasida yozadi: “Xamsa” panjasig‘a panja urupmen. Avvalkim, “Hayrat ul-abror” bog‘ida tab’im gullar ochibdur, Shayx Nizomiy ruhi “Maxzan ul-asror”idin boshimga durlar sochibdur”, – deb yozadi shoirning o‘zi bu haqda “M.L.” asarida.

Forsiy so‘z san’ati durdonalari tarjimasida malaka va tajriba hosil qilgan, mumtoz adabiyotning mohir tarjimoniga aylangan O‘zbekiston xalq shoiri J.Kamol “M.A.”ni ham o‘zi yaratilgan sare’i musaddasi matviyi maqsur (mavquf) vaznining ayni o‘zi b-n tarjima qilib, tarjimada shakl va mazmun birligiga erishgan. M-n:

Beh, ki suxan \ darpisan- \ d-ovari,
To suxan az da-ast balan- d-ovari.
– V V – \ – V V – \ – V –
Yaxshi erur \ so‘zni pisan- \ d aylasang,
So‘-o‘z maqo- \ mini balan- \ d-aylasang.

muftailun \ muftailun \ foilun

Ad.: *Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. Т., 2011; Эркинов С., Ганихонов М. Низомий Ганжавий. – Т., 1992.*

E.O.

MAXSUMOV Inoyat – (Toshkent) yozuvchi, 30-yillardan e'tiboran badiiy ijod b-n shug'ullangan. N. asarlari matnlarini o'rganish, ulardan ayrimlarining nasriy bayonlarini yaratish ishida ishtirok etgan.

Jumladan, M.I. "S.I." asarini N.ning 500 yillik yubileyi munosabati b-n n.shunos Yunus Latif b-n hamkorlikda Maqsud Shayxzoda muharrirligida nashrga tayyorlagan. Bu kitob 1940–1941-yy.da bir sahifasi nazm, ikkinchi beti nasr holida lug'atlari ila chop etilgan. Bir necha yil o'tgach yana bosilgan. Ma'lumki, Sadriddin Ayniy ham "X." dostonlarini qisqartirib, ularni batafsil sharh-izohlar, ilmiy tahlil va talqinlar b-n 1940 va 1947-yy.da ikki marta nashr ettirgan edi. N.Komilovning qayd qilishicha, S.Ayniydan farqli o'laroq G'.G'ulom, M.I., Amin Umariy, Sh.Husaynzodalarda "X." dostonlarining har bir bayti uning konkret ma'nosi va ibora-obrazlari b-n birgalikda nasrga ko'chirilgan. Bu esa M.I. ning mazkur sohadagi zahmatli mehnatining mohiyatini ochiq ko'rsatadi. Shuningdek, M.I.ning nasrlashtirish jarayonida N. saj'ga – ichki qofiyalanishga qat'iy amal qilgani N.Komilov tomonidan alohida e'tirof etilib, uning matn ichida izohlashning uch xil usulidan foydalangani aytiladi: qavs ichida so'zning ikkinchi ma'nosini keltirish (munchoq (yulduz), xushxabar (mujda) kabi), "ya'ni" izohlovchisi orqali sharhlash ("Ko'zimni muzdimga tikkan, ya'ni shohga qilgan yaxshiligimga yaxshilik tilagan bo'lsam) va so'zma-so'z tarjimaga murojaat etish.

1978-y.da esa M.I. asarning nasriy bayonini qayta tayyorladi. Mazkur nasriy bayonda dostonning dastlabki 4 bobi, 20, 21, 22 va 36-boblari, ya'ni Allohning hamdi, yaratuvchilik qudrati, Muhammad Rasulullo na'tlari, Me'roj voqealari, Haq va adolat g'oyalari tarannum etilgan qismlar aks etmaganini ko'rish mumkin. Keyinchalik, 1991-y.da adabiyotshunos Mavjuda Hamidova M.I. tayyorlagan nasriy bayon asosida "S.I."ni qayta to'ldirib, so'zboshi, dostondagi tarixiy va afsonaviy shaxslar hamda jug'rofiy nomlarning izohlari b-n qayta nashr ettirdi.

Shuningdek, M.I. 1977-y.da "S.S." dostonining nasriy bayonini hozirlagan bo'lsa, 1991-.da S.Hasanov hammuallifligida ushbu nashr qayta chop etilgan. M.I. "M.Q." (1983, 2020)ning nasriy bayonini ham mahorat b-n amalga oshirgan. Asardagi ayrim o'rinlar biroz qisqartirib tabdil qilingan. Mazkur sodda va xaqchil tilda bayon qilingan nasriy talqinlar N.ning insoniyatga cheksiz mehr-u muhabbat b-n yo'g'rilgan pand-u nasihatlari hisoblanmish "Qalblar mahbubi"ni anglab olishga ko'mak beradi.

M.I.ning 1968-y.da yozgan "Navoiy Astrobodda" (Q.: "Navoiy Astrobodda" maqolasi) musiqali dramasi ulug' shoir obrazini yaratgan asarlar sifatida ahamiyat kasb etadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. Насрий баён муаллифи Иноят Махсумов. – Т., 2019; Комилов Н. Хизр чашмаси. – Т., 2005; Алишер Навоий. Садди Искандарий. Насрий баён. – Т., 1976; Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. Насрий баён. – Т., 1977.*

S.O'.



MAXTUMQULI (1724–1807, Atrek) – ulug' turkman shoiri va mutafakkiri. Bizgacha M.dan 700 dan ko'proq she'rlari va 10 ga yaqin kichik hajmdagi dostonlari yetib kelgan. M. ijodi ko'plab chashmalardan suv ichgan: ular – Qur'oni Karim va unga yozilgan tafsirlar, Hadisi sharif va diniy adabiyotlar, tasavvuf falsafasi va adabiyoti, Sharq mumtoz so'z san'ati va xalq og'zaki ijodi. N. shaxsiyati va asarlari M.ning shoir o'laroq shakllanishi va ijodiy kamolot kasb etishida hal qiluvchi rol o'ynagan. N.ning M.ga ta'siri ikkiyoqlama bo'lgan – ham bilvosita, ham bevosita: N. ijodidan oziqlanib, buyuk so'z san'atkori ta'siri ostida rivojlangan va kamol topgan turkiy adabiyot va uning zabardast namoyandalari asarlari hamda N.ning bevosita o'z ijodi. Bu ilhombaxsh ta'sirning yorqin izlarini shoirning

ko‘plab she’rlarida ko‘rishimiz mumkin. Turkman xalqi orasida keng tarqalgan “Navoiy hayot bo‘lganida...” nomli rivoyat M.ning N.ga bo‘lgan beqiyos hurmat-ehtiromining yana bir ifodasidir. Rivoyatda aytilishicha, obro‘-e’tiborli kishilardan biri M.dan so‘rabdi:

– Agar hozir hazrati Navoiy bo‘lganlarida, siz nima qilardingiz?

– Ustoz Mir Alisher hayot bo‘lganlarida, – debdi. M-n, – men u kishidan jilovdorlikni tilab olgan bo‘lar edim. Otlarining jilovidan tutib, uzangilarini o‘par edim. Qo‘llariga suv quyib, sochiq tutsam, o‘zimni jannatiy deb bilar edim.

Uning “Bo‘lsam” radifli she’rida Umar Xayyom, Firdavsiy, Nizomiy, Hofiz, Rumiy, Sa’diy, N. kabi shoirlarning nomini, ba’zi asarlarini tilga olgani salaflari ijodiga maftunlik ifodasidir. Jumladan, M. she’r bandlaridan birida N. haqida:

Damganinda yegen ussat Novayi,
“Char divan”i, “Perxat - Shirin” zibayi.
Gashlarina barip men mejnun bolsam, -

deb yozadi. Va o‘zini “Ustoz Navoiy etagidan tutgan” shogird o‘rnida ko‘radi. Shoirning “Ch.D.”, “F.Sh.” asarlarini yuksak ijod namunasi tarzida e’tirof etadi. N. ijodiga xuddi “Majnun Layliga oshiq bo‘lgandek, oshiq bo‘lishni” xohlaydi. M.ning boshqa she’rlarida ham N. nomi, asarlari, yaratgan obrazlari uchraydi. Zero, M. she’rlarida N. nomini yoki biror asarini tilga olish b-n kifoyalanmagan. Shogirdlik mehrini ijodi orqali ham namoyish etgan. N.ga xos poetik unsurlarni, g‘azallari mavzularini o‘z dunyoqarashi, ijodiy prisiplari asosida, o‘z davrining hayot materiali fonida, xalqona uslubda yoritishga muvaffaq bo‘ldi. N. g‘azallariga yozgan naziralari, muxammaslarida bu ijodiy ta’sir ochiq ko‘rinadi. M-n, shoirning “Ko‘ngil”, “Qoshi yoy”, “To‘g‘risi”, “Ey, do‘st”, “Kerakmas”, “Ayladi” g‘azallari poetikasi, ifoda usuli N.ga juda yaqin. Ayniqsa, uning aruzda bitilgan “Ayt”, “Tut”, “Yaxshidir”, “O‘lmasdan burun” radifli g‘azallari, muxammaslari ham borki, ular bevosita N.ning shu radifdagi g‘azallari ta’sirining yaxshi samarasidir. Shoirning beshliklari orasida “Ayt” radifli muxammasning 1-bandi shunday boshlanadi:

Badi-saba, bu arzimni ol yovuz soltanga ayt,
Elmidam zar eylegen, ol gozleri xunganga ayt,
Shum pelekin golundan gitgen janijananga ayt,
Ayra dushuban, gam chekan, garabagit doganga ayt,
Dunyedan armanli bolgan ol paxir pervanga ayt.

Bu misralarni o‘qigan har bir kitobxon beixtiyor N.ning:

Ey sabo, holim borib sarvi xiromonimg‘a ayt,
Yig‘larimning shiddatin gulbargi xandonimg‘a ayt,

bayti b-n boshlanadigan, ko‘pchilikka yod bo‘lib ketgan “Ayt” radifli g‘azalni eslaydi. Ikki she’rning ifoda usulida o‘xshashlik ko‘p. Vazni, qofiyasi, radif, bo‘g‘in o‘lchovi bir xil. Biroq janri boshqa-boshqa. M. she’ri muxammas namunasi bo‘lsa, Navoiy g‘oyani g‘azal shaklida ochgan. Yana bir farqi shundaki, ikki she’rdagi lirik qahramonlar kechinmalari talqini ikki xil. N.ning lirik qahramoni ko‘proq ma’shuqaning bevafoligidan nolib, dard-u hasratini manzilga yetkazishni “sabo”dan iltijo qilsa, M.ning lirik qahramonini ijtimoiy hayotning muammolari tashvishlantiradi. Shoir jamiyatdagi adolatsiz turmush tarzidan norozi, arzini aytib, “sabo”ga murojaat etadi. Demak, M. N. qalamga olgan mavzuni o‘z zamoni talablaridan kelib chiqib, o‘z tafakkur mezoni, hayot tajribasi asosida yangicha talqin etgan.

Ma’lumki, M. lirikasida didaktik motivlar yetakchi. Shoir Sharq falsafasi, sharqona odob-axloqqa xos ta’lim-tarbiya yo‘nalishida ijod qilarkan, N.ning ta’limiy mazmundagi hikmatli so‘zlari M. u-n nasihat she’rlar bitishda badiiy shakl vazifasini o‘taganini misollar tasdiqlaydi. N.ning insonparvarlik g‘oyalari kuylangan ushbu:

Odami ersang, demagil odami,
Onikim, yo‘q xalq g‘amidin g‘ami –

shohbayti M.ni ham ilhomlantirgan. Baytdagi buyuk g‘oya, ma’no qudrati va talqini, oddiy ifoda usuli turkman shoiri qalbida ijod zavqini uyg‘otgan. Va quyidagi turkum she’riy qatorlarni ijod etgan:

Adam bardir, ani shalar chagirdar,
Adam bar, zulm edip, garip agirdar,
Adam bar, per dushek yanin agirdar,
Adam bardir, ak kiz dizina degmez.

Yoki:

Adam bolup, adam gadrin bilmeyen,
Ondan yene otlap yoren mal yagshi,
Sozlegende, soz manisin bilmeyen,
Ondan yene sozlemeyen lal yagshi.

M.ning axloqiy-ta’limiy she’rlarida ham mazmun-mohiyati, ifoda shakli bn N. baytini eslatadigan misralar bisyor:

Adam bar – mung tumen iydirseng azdir,
Adam bardir – iyen ashina degmez.

Yana:

Adam bardir adamlarni bozduran,
Sheytan bolup, dogri yoldan azdiran...

Bu o‘xshashlik taqlid emas, ijodiy ta’sir, deb qaralmog‘i lozim. M. bandlari, misralari N.ga qanchalaik o‘xshamasin, mazmuni butunlay o‘zgacha. Odamgarchilik xislatlari ikki shoirda ikki xil jaranglaydi. N. baytidagi “odam” b-n M.dagi “odam” mohiyat e’tiboriga ko‘ra boshqa-boshqa dunyoqarashlarga ega shaxslar. N. aforizmida nasihat ohangi, M.da esa satirik ruh kuchli. Demak, u N. qo‘llagan “odam” obrazidan tamoman o‘zga maqsadda foydalangan.

N. va M. asarlarini qiyosan o‘rganganda, ular ijodida mushtarak mavzular tasviri, o‘xshash obrazlar talqini, an’anaviy tashbeh-u timsollarning o‘ziga xos yangicha ifodasini ham ko‘ramiz. M-n, dunyoni qoralash, tanqid qilish – mumtoz adabiyotda asosiy o‘rin tutadi. Bu diniy-tasavvufiy qarashlar b-n bog‘liq. Unga ko‘ra, dunyoga ortiqcha mehr qo‘yish insonni haq yo‘ldan ozdiradi, Allohdan begonalashib, tubanlashuviga sabab bo‘ladi. Shuning u-n ham tasavvuf adabiyotida dunyo ko‘pincha noz-u ishva b-n oshiqlarini yo‘ldan uradigan, lekin hech kimga vafo qilmaydigan xiyonatkor ma’shuqaga o‘xshatiladi; paranji-chachvon ichida go‘yoki sarvqad va go‘zal ko‘rinadigan, aslida esa qaddi bukchaygan, tishlari to‘kilgan qari kampirga qiyoslanadi; talabgorlarini sehr-u jodu b-n tuzoqqa tushirib, o‘z yo‘rig‘iga yurgizadigan, xohlagan ko‘yiga soladigan jodugar, alvasti, zol, ajuza qiyofalarida tasvirlanadi. N. ijodida ular yanada rivojlantirilgan va yangidan-yangi ma’no qirralari b-n boyitilgan. U, hatto, barcha yomonlik, yolg‘on, riyo timsoli bo‘lganligi u-n ham dunyoni islomdagi har to‘rtala mazhab b-n uch taloq qo‘yganligini o‘z she’rlarida takror-takror aytadi:

Dahr zolin to‘rt mazhab birla qildim uch taloq,
Fard qildi bori mundoq kadxudoliqdin meni.

Sharq mumtoz she’riyatida dunyoga berilgan sifatlarning barchasini M. she’rlarida ham ko‘ramiz. Shu b-n birga, boyligi-yu ne’mati b-n avrovchiligiga ko‘ra unga ilon, ilonpari, qo‘ldan sirg‘alib chiqib ketishi jihatidan baliq, yovuzligi sababidan qashqir, insonni ovlashiga ishora qilib qirg‘iy, bir yerda muqim turmasligi jihatidan karvon, ko‘ch, o‘tkinchiligi tufayli yolg‘onchi degan yangi sifatlarni beradi. Xususan, yolg‘onchi, foniy, bevafo so‘zlari istiora sifatida dunyo ma’nosida keladi, dunyoning o‘rnida qo‘llanadi. M-n:

Dunyo bir ilonparidir − zulfin aylab
tor-tor,
“Beri kel!” − deb chorlabon termilib
har yon qarar.

M. o‘zining buyuk salafi asarlaridagi ko‘plab g‘oya va qarashlarni she’rlarida rivojlantirgan va boyitgan: ularning yangidan yangi qirralarini ochgan, o‘ziga xos yechimini bergan. M. ijodida N.ga hamohanglikning turli ko‘rinishlari mavjud:

Qo‘ldan kelgan yaxshi ishing bo‘lmasa,
Ko‘ngil ichra yaxshi niyat yaxshidir, –

misralari ustozining yaxshilik qilmagan kishi yomonlik ham qilmasa, shuning o‘zi ham yaxshilik qilgancha bor, mazmunidagi quyidagi baytlariga hamohang jaranglaydi:

Yaxshilig‘ gar qilmasa, bori yomonlig‘
qilmasa –
Kim, yomonlig‘ qilmasa, qilg‘ancha
bordur yaxshilig‘.

Bu hikmatlar bir mavzuda, bir yo‘nalishda bo‘lsa ham, bir-biridan o‘zaro farq qiladi: N. birovga yomonlik qilmaslikning o‘zi yaxshilikdir, desa, M. yaxshilik qilolmaganga yaxshi niyat ham kifoyadir, deydi.

Yaxshidir dunyoda qolsa yaxshi ot,
Bu dunyoga kelgan bo‘lsang o‘tarsan, –

misralari esa N.ning mashhur:

Bu gulshan ichraki, yo‘qtur baqo guliga sabot,
Ajab saodat erur chiqsa yaxshiliq bila ot,

hikmatini yodga tushiradi. Chunki har ikkala hikmatda ham dunyoning foniyligi-yu yaxshi nomning boqiyligiga urg‘u berilgan. Bu fikrni har bir shoir o‘ziga xos yo‘sinda ifodalagan. M. bu fikrni dunyo va inson munosabatiga bag‘ishlangan “Yetarsan” she’rida qistirib ketsa, N.ning mazkur teran ma’noli so‘zlari muammo janrida ifodalangan.

Azaldan qismat qilingan tug‘ma tabiatni o‘zgartirib bo‘lmaydi. Albatta, inson o‘z fe’lidagi, tabiatidagi bema’ni orzu-o‘ylari, yovuz intilishlari, nojo‘ya xatti-harakatlarini jilovlab, ayb-u qusurlarini hammadan yashirib yurishi mumkin, lekin bir kuni u o‘zining asl mohiyatini namoyon qiladi. Shundan kelib chiqib, N. o‘zining mashhur qit’asida zuvalasiga insoniylik urug‘i qo‘shib qorilmagan kimsalarni har qancha tarbiyat qilma, baribir, tuzalmaydi, degan fikrni bildirgan edi:

Nokas-u nojins avlodin kishi bo‘lsun
debon
Chekma mehnatkim, latif o‘lmas
kasofat olami –
Kim, kuchuk birla xo‘tukka necha
qilsang tarbiyat,
It bo‘lur, dog‘i eshak, bo‘lmaslar
aslo odami.

Darhaqiqat, odam bolasi tarbiya tufayli ilm-u hunar egallab, ba’zi yaxshi fazilatlarga ega bo‘ladi, lekin uning tabiatidagi yovuzlik, kin, hasad, baxillik, g‘arazgo‘ylik, tuhmatchilik, yolg‘onchilik kabi illatlarni dunyoning jami donishmandlari bir bo‘lib tarbiyalasalar ham, yo‘qotolmaydilar.

N. o‘zining ko‘p yillik kuzatishlari va ular asosida tug‘ilgan mushohadalarini hayotiy misollar vositasida keng va batafsil tushuntirsa, “Zar bo‘lmas” she’rida M. ayni fikrni xalq maqollari va obrazli iboralari orqali dalillaydi:

Tagi past g‘amini yeyish behuda,
Mis har qancha yaltirasa, zar bo‘lmas.

Har qancha ranj chekma, tortar asliga,
Har qarg‘a-quzg‘undan kabutar bo‘lmas.

M.ning quyidagi misralari esa buyuk salafi va o‘zining ushbu fikrlaridan kelib chiqqan xulosa yanglig‘ jaranglaydi:

Kimningki badbaxtlik tabiatida,
Butun olam ojiz tarbiyatida.

N. ham, M. ham she’rdan hikmat qidirgan mutafakkirlardan hisoblanishadi. Bu donish-

mand shoirlar nazdida, adabiyot bu – hikmat nuri bilan ong-u shuurni munavvar, hikmat duri b-n koʻngillarni muzayyan aylash, hikmat yordamida kishilarga haq yoʻlini koʻrsatishdan iborat. Hikmat soʻzining ma'nosi donishmandlikni sevish ekanligidan kelib chiqsak, ustoz shoirlarning she'rni hikmat deb tushunishlari adabiyotni ma'naviy-axloqiy tarbiyaning kuchli qurollaridan biri, insonni ma'rifat manziliga yetkazadigan va kamolot choʻqqisiga koʻtaradigan eng samarali vosita, deb bilishlaridan dalolat beradi. N. va M. asarlarining asrlar davomida insoniy kamolotga erishish yoʻllari koʻrsatilgan oʻziga xos komillik kodeksi vazifasini bajarib kelayotganligi bejiz emas. M. badiiy-estetik qarashlari bilangina emas, ijodiy yoʻli b-n ham N.ga voris ijodkor. U ham Jomiy va N. kabi orif shoirdir.

N. va M. asarlarini bir-biriga qiyos qilib oʻrganar ekanmiz, har ikki mutafakkir shoirning olam va odamga, insoniy qadriyat va tushunchalarga, narsa-hodisalar, tabiat va jamiyat, hayot va ijodga qarashlari mushtarak ekanligini koʻramiz. M. va N.ning soʻzga munosabati, adabiyotga qarashi, ijodiy konsepsiyasi, badiiy-estetik prinsiplari ham oʻzaro mushtarakdir. M.ning turkiy adabiyotdagi mavqeyi va shuhrati uning N.dan ta'sirlanish, unga ergashish, buyuk salafi an'analarini davom ettirish bosqichidan oʻtib, u b-n ijodiy musobaqalashish, uning "panjasiga panja urish" darajasiga koʻtarila olganligini koʻrsatadi. N. kabi M. ham oʻzigacha yaratilgan Sharq adabiyotining barcha yutuqlarini oʻz ijodida mujassamlashtirib, ularni rivojlantirgani, betakror asarlari b-n boyitgani u-n oʻzi ham buyuk soʻz san'atkorlari safidan munosib oʻrin egalladi va oʻzidan keyingi adabiyotga kuchli ta'sir koʻrsatib, asarlari asrlar davomida ijod ahli u-n oʻziga xos mahorat maktabi boʻlib kelmoqda va shunday boʻlib qoladi.

Ad.: *Махтумқули. Ҳикматлар. – Т., 2013; Махтумқули. Булбул ноласи. – Т., 2014.; Бертельс Е. Махтумкули // Махтумкули (Сборник статей о жизни и творчестве поэта). Ашхабад, 1960; Гаррыев Б. аср Магтымгулы. Ашгабат, 1975; Абдуллаев В. Классик адабиётларимиз ҳамҳоҳанглиги // Сайланма. – Т., 1982; Қурамбоев К. Махтумқули – илҳом чашмаси. – Т., 2012; Очилов Э. Махтумқули. – Т., 2015.*

S.R., E.O., S.Oʻ.

MASHRIQDA GANJ TOPGAN KISHI HIKOYATI – "S.I." dostonidagi yer yuzini olgan Iskandarning daryo safariga chiqish u-n tayyorgarlik koʻrishi haqidagi bobga ilova qilingan hikoyat. Unda tasvirlanishicha, birov Mashriqda boy bir xazina topadi. Xazina eshigiga esa: "Bu xazinani topgan kishi darhol Magʻrib sari safar qilsa, falon yerda bundan ham kattaroq xazinani topadi", – deb yozib qoʻyilgan boʻladi. Buni oʻqigan xomxayol ochkoʻz har ikkala xazinani ham qoʻlga kiritmoqchi boʻladi. Shu maqsadda naqdni qoʻyib, nasiyaga intiladi – Magʻrib sari yoʻl oladi. Necha yillar davomida ming bir mashaqqat b-n dasht-u daryolardan oʻtib, maqsad-manzilini topganida, boshiga ajal yetadi. Umri ranj-u azobda oʻtib, na unisidan va na bu xazinadan bahramand boʻladi.

Emas shohlik olmoq yurib bahr-u bar,
Erur topmoq andinki, Haq berdi bar, –

der ekan, shoir bu b-n Iskandar taqdiriga ishora qiladi: yer yuzini egallagan jahongir endi dunyoga egalik qilib, xotirjam yashashi mumkin edi. Lekin u yer yuzini olganiga qanoat qilmay, yer osti – suv olamini ham zabt etmoqchi boʻladi. 13 yil davomida 7 daryo, 12 ming jazirani tasarrufiga kiritadi. Muhit markaziga yetadi, lekin oqibat na dunyo, na suvda erishganidan bahra topadi – hammasini qoldirib, quruq qoʻl b-n dunyoni tark etadi. Ayni jihatdan uning ham taqdiri bir xazinaga qanoat qilmay, ikkinchisini izlagan, oqibat har ikkisidan ham bebahra qolgan ochkoʻz kishining taqdiriga oʻxshaydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

M.A.

MASHRIQIY (XV asr) – shoir. Temuriylar davrining zabardast olim va fozillaridan. Hirotda yashab ijod qilgan. Zamonasining asosiy ilmlarini egallab, she'r va adab ilmlarida benazir bo'lgan. N.ning "M.N." tazkirasida ma'lumot berilishicha, mohir xattot ham bo'lib, kitob ko'chirish b-n tirikchiligini o'tkazgan. She'riyatning turli janrlarida qalam tebratgan bo'lib, g'azalnavislikda mohir bo'lgan. Quyidagi matla' uning ta'bi nazmidan:

Gavhari ashk nisori rahi yore kardam,
Shodam az oshiqi xesh, ki kore kardam.

Tarj.: Yor yo'lida ashk gavharini sochdim, bir ish qilganim u-n o'zimning oshiqligimdan shodman.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 2. – Душанбе, 1989.*

E.O.

MASHHAD – Eronning shimoli-sharqida, Kashafrod daryosi bo'yida joylashgan shahar. Qadim zamonlarda Tus deb ham atalgan. M. so'zining lug'aviy ma'nosi: 1) odamlar hozir bo'ladigan, to'xtaladigan joy; 2) shahid bo'ladigan joy, shahodatgoh; 3) Majoziy: shahid bo'lgan kishining qabri, mozor. Shaharlar qabristoni. M. XI-XII asrlarda va saljuqiylar qo'l ostida bo'lib, XIII asr oxirida mo'g'ul bosqinchilari tomonidan vayron qilingan. XIV asrdan M. yana tiklanib, Xurosonning yirik shaharlaridan biriga aylangan. Temuriylar hukmronligi davrida M. mamlakatning iqtisodiy madaniy tomondan rivojlangan shahriga aylandi. Shohruxdan so'ng Xuroson taxtiga o'ltirgan Bobur Mirzo Abulqosim davrida M. Xuroson davlatining poytaxti bo'lib turdi. M. Ali avlodlaridan sakkizinchi imom – Imom Rizo maqbarasi (IX asr), Gavharshod masjidi (1405-1418), madrasa va karvonsaroylari b-n mashhur.

1456-y. oktyabr oyida Abulqosim Bobur poytaxtni Hirotdan Mashhadga ko'chiradi. N. Husayn Boyqaro b-n birgalikda Abulqosim Boburni M.ga kuzatib keladi va uning xizmatida qoladi. Bu vaqtda N. o'n besh yoshda edi. Biroq 1457-y. 22-martda Abulqosim Bobur to'satdan vafot etadi. Husayn Boyqaro M.ni tashlab, Marv, Xorazm tomonlarga podshohzoda sifatida o'z baxtini izlab ketadi. N. esa M.da qolib madrasada o'qishini davom ettiradi. N. M.da 1465-y.gacha qolib, madrasada adabiyotshunoslik tilshunoslik, ilmi bade', tarix, hisob, handasa, hay'at (astronomiya), falsafa asoslarini, Darvesh Mansurdan aruzni o'rgana boshlaydi. N. uchun ona shahri – Hirotdan uzoqda yashash, o'qish oson bo'lmagan.

U she'r yozish va mutolaa qilish b-n muttasil shug'ullanar, adabiy majlislardan qolmas edi. Shoir Shayx Kamol Turbatiy b-n kasal vaqtida tanishgan va do'stlashgan edi. "M.N."da N. qirqdan ortiq mashhadlik shoir haqida ma'lumot beradi. Bu voqeani u "M.N."da Hasan Turbatiy zikrida ham eslaydi. N.ning M. b-n aloqasi hech qachon uzilmagan va umr bo'yi davom etgan. Shoir mashhadlik qalam ahllari va ularning ijodini yaxshi bilgan hamda "M.N."da ular haqida ma'lumot bergan. Mavlono Abdulvahhob, Mir Muflisiy, Mir Imod Mashhadiy, Darvesh Nozukiy, Mavlono Asiliy, Mavlono Ofatiy, Mavlono Moniy, Mavlono Majnun, Vafoiy, Mavlono Habib, Shodiy, Mavlono Qalandar, Qironiy, Fanoiy, Faxriy va boshqalar shular jumlasidandir.

N. M.dagi Imom Muso Rizo mozorini tez-tez ziyorat qilib turgan. Bu haqda N.ning o'z asala-

rida ham, boshqa tarixiy manbalarda ham qaydlar mavjud. “Habib us-siyar” muallifi Mo‘min mirzoning o‘ldirilishi voqeasini bayon etar ekan, N.ning bu paytda Hirotda bo‘lmagani, M.ga ziyoratga ketgani va u yerdan qaytib kelgandan so‘ng, bu mudhish voqeadan xabar topgani haqida yozadi. N. M.da ulkan obodonchilik va bunyodkorlik ishlarini amalga oshirgan, xususan, uning M. kanalini qazdirib, bu yerga suv olib kelishi mazkur viloyatning gullab-yashnashi, xalqning turmushi va tirikchiligining yaxshilanishiga sabab bo‘lgan. Bu ishning ahamiyati haqida Davlatshoh Samarqandiy asarida bitilgan so‘zlar diqqatga sazovordir: “Tus viloyatining yuqori qismida bo‘lgan Chashmayi Gil suvi muqqadas Mashhad shahariga olib kelindi, bu bilan ... Mashhadning muqim xalqini suvsizlik azobidan xalos qildi ... mazkur ariqning uzunligi qariyb o‘n farsah (70 km) dir. Ulug‘ amirning ushbu ehsoni barcha ehsonlarga sharaf bo‘lg‘usidir”.

Shuningdek, N. Imom Rizo ziyoratgohida shukuhli, go‘zal imoratlar qurdirgan. Ulardan biri Dor ul-huffoz deb atalgan. Yana biri G‘alvurxona bo‘lib, faqir va kambag‘allarga ovqat tarqatilgan. N. bu yerda yana bir muhtasham ayvon ham qurdirgan. N.ning hayotni tushuna boshlashida M. davri muhim rol o‘ynagan.

M.da N. Pahlavon Muhammad Go‘shtgir b-n tez-tez ko‘rishib turgan. Bu esa N.ning musofirlikdagi kayfiyatini ko‘tarar, ular b-n har mavzuda bahslar olib borar edilar. N. o‘zi hikoya qilishicha, Pahlavon Muhammad M.da mafosil kasalidan tuzalishiga yordam qilgan. N. M.ning mashhur tabibi Mavlono Abdussalom Sheroziy b-n ham muloqotda bo‘lgan. N. hayotining M. davri haqida “H.P.M.” asarida hikoyalar mavjud. N. M.da ko‘pgina she’rlar yozgan bo‘lib, ularning ko‘pchiligi shoirning “I.D.”ga kirgan, deb taxmin etiladi. N.ning 1465-y.da tuzilgan devonidagi “G‘urbatda g‘arib shodmon bo‘lmas emish...” deb boshlangan ruboiysida shoirning M.dagi g‘ariblik kayfiyati ifodalangan.

N. Husayn Boyqaro davlatida yuqori mansablarga ko‘tarilgandan keyin (1469), uning M. B-n aloqasi yanada kuchaydi. M.da N. Imom Rizo maqbarasi doirasida “Dor ul-huffoz” deb atalgan imoratni qurgan. Shuningdek, N. o‘n ikki farsax uzunligida ariq qazib, suv keltirgan. (“Chashmayi gul”). N. u-n M. qadrdon shahar bo‘lib qolgan edi. N. M.da goh davlat ishlari b-n, goh Sulton Husayn Boyqaro topshirig‘iga ko‘ra tez-tez bo‘lib turar edi. N. “Xam.M.”da bu haqda “Faqirni podshoh ba’zi maslahatlar uchun Murg‘obdin ta’jil bila Mashhadga yiborib erdilar...”, – deydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳолоти Паҳлавон Муҳаммад. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2001; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011. Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985; Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар бўстони. – Т., 1981; Ўзбек адабиёти тарихи. 5 жилдлик, 2-жилд. – Т., 1977. Алишер Навоий. Ҳолоти Паҳлавон Муҳаммад. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2001; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011. Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985; Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар бўстони. – Т., 1981; Ўзбек адабиёти тарихи. 5 жилдлик, 2-жилд. – Т., 1977.*

Q.E.

MA’DAN (Taxallusi; ismi: Odinamuhammad Avazmuhammad o‘g‘li) (1762/88–1838/46, Asht (Tojikiston)) – shoir. Avazmuhammad degan kambag‘al dehqonning farzandi. Boshlang‘ich ma’lumotni tug‘ilgan qishlog‘i Pang‘ozda olib, keyin o‘z davrining fozil kishisi bo‘lgan Muhammadamin Kosoniydan tahsil olish u-n Punuk qishlog‘iga boradi. Forsiy va turkiy adabiyotning Sa’diy, Hofiz, Jomiy, N., Hiloliy, Fuzuliy, Bedil kabi zabardast namoyandalari asarlarini o‘qib-o‘rganadi, ulardan mahorat sabog‘ini oladi. Avval Kamina taxallusi b-n ijod qilib, ustozining tavsiyasiga ko‘ra keyin M. taxallusini oladi.

M. yashagan davrda Toshkent va Farg‘ona o‘rtasidagi savdo yo‘li Pang‘oz va Bobodarxon yo‘llari orqali o‘tar edi. Bobodarxonda karvonsa-

roylar bo‘lib, ularda mashshoq va hofizlar ishtirokida bazmlar tashkil etilardi. Bunday kechalarda M.ning turli mavzulardagi she’rlari ham ko‘p o‘qilgan. Shoirlik ovozasi Qo‘qon xonigacha yetib, Umarxon uni saroyga taklif etadi. Lekin ortiqcha dabdabani, saroy hashamatini xohlamagan oddiy qishloq yigiti bu taklifni rad etadi. Tahsilini tugatgach, qishlog‘iga qaytib, dehqonchilik qilib kun kechiradi.

40 yoshigacha Pang‘ozning Shayxon mahallasida yashab, mahalliy boy va amaldorlarni hajv qilib she’rlar yozgani u-n ularning ta’qibiga uchraydi. “Diyonat raft” (“Diyonat ketdi”), “Avazbiy” she’rlari u-n uni tutib, qattiq kaltaklaydilar. Shundan keyin u shol bo‘lib qoladi. Majburan Mulloyon mahallasiga ko‘chib o‘tsa-da, u yerda ham tinch yasholmaydi. 77 yoshida vafot etgan. Qabri o‘z qishlog‘idagi Mirhakim ota qabristonida bo‘lib, maqbara darvozasiga uning 2 bayti o‘yib yozilgan.

Devonining umumiy hajmi 3644 misradan iborat bo‘lib, o‘zbek (1168 misra) va tojik tillaridagi (2466 misra) g‘azal, muxammas, musaddas, qasida, tarji’band , qit’a va ruboiy janrlaridagi namunalarni o‘z ichiga oladi. O‘zbekcha she’rlarida N. va Fuzuliy, tojikcha ijodida Jomiy va Bedilning ta’siri kuchli. Muxammaslarining bir qismi mustaqil bo‘lsa, bir qismi Jomiy, N., Hiloliy, Bedil, Sho‘xiy Xo‘jandiy va boshqa shoirlarning g‘azallariga bog‘langan. Maxmurning “Hapalak” she’ridan ilhomlanib, “Pang‘ozi” muxammasini yaratgan. Shoir she’rlari sodda til, ravon uslubda yozilgan bo‘lib, badiiy san’atlarga boy.

M. haqidagi ilk ma’lumot Fazliyning “Majmuayi shoiron” tazkirasida uchraydi:

Buvad Ma’dan on koni ganji suxan,
Buvad qar’yai Pang‘oz o‘ro vatan.

Tarj.: Ma’dan so‘z gavharining koni bo‘lib, Pang‘oz qishlog‘i uning vatanidir.

Shoir haqida ma’lumot va tavsiflar b-n uning Umarxonga bag‘ishlangan 2 qasidasi va bir tojikcha g‘azalini keltiradi.

M.ning ijtimoiy qarashlari, didaktik fikrlari ko‘proq kichik janrlardagi she’rlarida o‘z aksini topgan. U qator qit’a, ruboiy, chiston va ta’rixlarida o‘zi yashagan davr b-n bog‘liq kuzatish va mulohazalarini ixcham va lo‘nda shaklda ta’sirchan ifodalaydi. M-n:

Ey xush on marde, ki monad nomi nekash dar jahon,
To qiyomat qissa bar nomash bixonad qissaxon.
Az du kas asrori neki monda dar olam nishon:
Himmat az Hotam zuhur-u adl az No‘shiravon.

Tarj.: Dunyoda o‘zidan yaxshi nom qoldirgan kishi baxtlidir. Qiyomatgacha odamlar uning ezgu nomini doston qilib yashaydilar. Dunyoda 2 kishidan 2 yaxshilik boqiy qolgan: Hotami Toydan himmat-u Anushervoni odildan adolat.

Bu qit’a N.ning quyidagi mashhur muammosiga hamohang jaranglaydi:

Bu gulshan ichra yo‘qtur baqo guliga sabot,
Ajab saodat erur qolsa yaxshilig‘ bila ot.

N.ning mashhur:
Kimki oning bir malaksiymo parivash yori bor,
Odami ersa, pari birla malakdin ori bor, –

bayti b-n boshlanadigan g‘azali ta’sirida yozgan she’rda mutanosiblik yaqqol ko‘rinadi:

Bir muvofiq bo‘lsa yori dahr aro har kimsani,
Layli-yu Shirin-u Uzrodin qachon parvosi bor?!

M. N. g‘azallariga qator muxammaslar ham yozgan. Jumladan, “Menga nomehribon yor o‘zgalarga mehribon ermish” misrasi b-n boshlanadigan g‘azaliga badiiy yetuk taxmis bog‘lagan. M-n:

Tan uzra emdi fahm etdim adadsiz
toza dog‘imni –
Ki, ul har bir qororg‘on dog‘i
hijrondin nishon ermish.

Ma’dan hayoti va ijodi P.Qayyumov, A.Qayumov, V.Abdullayev, T.Ne’matzoda, H.Muxtorova kabi o‘zbek va tojik olimlari tomonidan o‘rganilgan.

Ad.: *Маъдан. Ашъори мунтахаб. – Душанбе, 1966; Маъдан. Ғазаллар. Мухаммаслар. Асрлар нидоси. – Т., 1982; Қаюмов Қ. Қўқон адабий муҳити. – Т., 1961; Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т., 1964; Тазкираи Қайюмий. 1-китоб. – Т., 1998; Мухторова Ҳ. Маъдан. Ўзбек адабиёти тарихи. 4-жилд. – Т., 1978.*

E.O.

MA’MUN – Sharq adabiyotida va N.ning “T.M.A.” asarida uchraydigan tarixiy xarakterdagi obraz. M. xalifa – IX asrda Bag‘dodda xalifalik qilgan Horun ar-Rashidning o‘g‘li. M. davrida madaniyat, ilm-fan juda yuksalgan, hatto “Ma’mun akademiyasi” iborasi b-n mashhur bo‘lgan ilmiy-madaniy markaz nomi hamda faoliyati tarixiy va adabiy manbalarda o‘z ifodasini topgan. M.ning zamonasining taniqli olimlari, san’at va adabiyot vakillariga har tomonlama homiylik qilgani borasidagi qimmatli ma’lumotlar yetarlicha uchraydi. N. ham “T.M.A.” asarida Xalifa M. faoliyatining bu jihatlariga urg‘u bergan va shu haqda asarda to‘xtalgan.

Umuman, Sharq mumtoz adabiyotida M.ning darveshlar b-n qilgan suhbatlari haqidagi syujetlar ham uchraydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

B.R.

“MA’NOLAR OLAMIGA SAFAR” – taniqli adabiyotshunos olim N.Komilovning N. g‘azallari sharhiga bag‘ishlangan kitobi (2012). Undan ulug‘ shoirning 50 ta g‘azali sharhi o‘rin olgan bo‘lib, dastlabki 40 tasi “G‘.S.” devoni 1–40-g‘azallarining sharhidir. Bu sharhlar 3 bosqichli bo‘lib, avval g‘azaldagi tushunarsiz so‘z, ibora, istiloh, tushunchalar lug‘ati keltiriladi. Keyin g‘azalning baytma-bayt nasriy bayoni beriladi. Shundan so‘ng g‘azalning umumiy mazmun-ma’nosi – erkin sharhiga o‘tiladi. Kitobdan, shuningdek, g‘azalning aruziy talaffuziga oid kirish-so‘z o‘rin olgan va unga n.shunoslikka oid maqolalar ilova qilingan. Bu sharhlar o‘quvchilarni buyuk shoir g‘azallarini butun mazmun-mohiyati b-n tushunishlariga yordam berish maqsadiga yo‘naltirilgan. Olim, xususan, N. g‘azallarining tasavvufiy ma’no qatlamlarini keng va chuqur ochib beradi.

Ad.: *Комилов Н. Маънолар оламига сафар. – Т., 2012.*

Z.R.

MA’RIFATULLOH – Allohni bilish, uni ma’lum bir maqomda tanish. Mashhur bir hadisda “Avval ul-ilmi ma’rifatullohi”, ya’ni “Ilmning boshi, avvali ma’rifatullohdir”, deyiladi. M.dan maqsad esa, Allohning zotini, ism va sifatlarini tanish va bilish, Unga iymon keltirishdir. Bu yo‘l har bir insonning o‘z nafsini tanishidan boshlanadi. “Nafsini tanigan – Rabbisini taniydi” hadisi bunga dalil bo‘ladi. Zotan, har bir inson Tangrining yaratiqlari va insoniyatga yetkazilgan ilohiy ilmlar vositasi bilangina Uni imkoni darajasida taniydi va idrok etadi.

Alloh taoloning zoti jism kabi hajmga ega emas, ko‘zimizga ko‘rinadigan va ko‘nglimizga keladigan barcha narsalar Alloh taoloning zotiga o‘xshamaydi. Chunki Unga o‘xshash biron narsa yo‘qdir. Payg‘ambarimiz ilohiy mohiyatni anglash jarayonining nechog‘lik mushkulligi va imkonsizligi borasida hayrat va e’tirof ichida shunday deganlar: “Xudovando, agarchi manga o‘n hissa aql karam qilding, ammo u hush qaniki ani ila sani diydoringni ko‘rgayman va tanurman, botinda sani bechun va bechugina, bemisl va benamuna ko‘rarman. Vaqteki, aql birla fikr etsam, sani hama nimarsadin judo ko‘rurman va harchand aql yugurar vaslingga yetolmas va sani zeboligingni ziyodadin ziyoda ko‘rarmanki, san boshqasan va ajoyibsan”.

Haqiqat ahlining fikricha, inson faqatgina M. orqali saodatga erishadi. Ya'ni, ma'rifat bir nur bo'lib, imon ahli shu ma'rifat nurlari orqali Allohga yaqinlashadilar. Haq ma'rifati inson ko'ngli orqali kashf bo'ladi.

N. "H.A." dostonining avvalgi munojotida dunyoning yaratilishi haqida so'zlab, Alloh bu dunyoda o'zini oshkor qilish u-n hikmat b-n maxluqotni paydo qilgani va shu maxluqot ichida insonni eng sharif va eng aziz zot qilib yaratganidan xabar beradi. Yaratuvchining bu dunyoda tajalli qilgani, O'zining yaratiqlari orqali go'zalligini, kuch-qudratini namoyon qilgani ham xos bandalarga ulug' marhamat edi. Chunki ular hidoyat nurlari va toza aqllari b-n Allohni taniydilar va uning qarshisida lol-u hayron bo'lib qoladilar. O'z navbatida Allohning ularga o'zini tanitishi cheksiz marhamat bo'lib, ma'rifat sohibi bo'lishlariga sabab bo'ladi. Lekin ular bu ma'rifatni haqqi ila sifatlay olmaydilar:

Ma'rifating kim qila olmay sifat,
Qilding ani orifi ul-ma'rifat.

"N.M."da keltirilishicha, Shayx Abubakr bin Yazdonyor Urmaviy "Ma'rifat – Allohu taoloning vahdoniyati bilan qalbning qaror topishidir", deb ta'rif beradi. Ahli ma'rifat esa bilimdon kishilar, ma'rifat egalaridir. M. tasavvuf tushunchasi sifatida solik maqomlaridan biri; solik ma'naviyatining kundan kunga ortib borishi, koinot va tabiat ilm-u hikmatidan, shuningdek, insoniy va ilohiy sir-asrorlardan voqif bo'lib borishi. Binobarin, ma'rifatning avvali Haq taoloning borligini mushohada etishdan boshlanadi. Ma'lumki, tasavvufda solikni kamolotga yetkazuvchi to'rt bosqich, ma'naviy maqom bor: shariat, tariqat, haqiqat va ma'rifat. Hujviriy "Kashf ul-mahjub" asarida: "Faqihlar kabi boshqa kishilar ham Alloh haqidagi ilmga "ma'rifat" nomini berganlar. Tariqat shayxlari esa Alloh xususidagi sihhatli holni "ma'rifat" deya ataganlar", deydi. N. ijodiga nazar solsak, "ma'rifat" tushunchasi bir qancha ma'nolarda qo'llangan. Zero, tasavvufiy nuqtayi nazardan ma'rifatning nozik ma'no farqlari bor.

Ko'ngul ilohiy xitobning, ma'rifat va irfonning mazhari. Oriflar tilida ilohiy sirlar makoni va maxzani bo'lgan joy. Shuning uchun ham N. "L.T."da "ma'rifat" vodiysidan bahs yuritib, Yaratuvchiga shunday munojot qiladi:

Ey qilib insonni koni ma'rifat,
Ko'nglini aylab jahoni ma'rifat.

Inson ruhi mavjud olamdagi turli hodisalarni kuzatish va mushohada qilish orqali hayratlanadi va Yaratuvchining san'atini ko'rib, unga ishonch va e'tiqod bildiradi. Bu haqda N. yozadi:

Muncha g'aroyibki qildi guzar,
Ayladi ibrat ko'zi bilan nazar.

Barchasida zikr sujud angladi,
Ma'rifatullohga shuhud angladi.

Ma'rifat vodiysida haqiqatning mohiyatini tanigan, ma'naviy kamolotga yetgan shaxslar – oriflar haqida fikr yurgiziladi. (Q.: orif) Ular yaxshi bilan yomonni, kufr ila imonni, dayr (butxona) bilan Ka'bani farqlasalar-da, asl maqsad yo'lida ularga e'tibor bermaydilar. Anglagan mohiyatlari qarshisida hayron-u lol bo'lib, sarmastlik ichida yashaydilar. Har bir orif o'z maqomi darajasida haqiqatni idrok etadi. Oriflarning e'tiroficha, Haqni bilishning – M.ning yuz tuman tarmoqlari bordir. Unda har bir M. sohibi o'z aqli va maqomi darajasida Haqni taniydi, uni idrok etadi.

N. ma'rifat tushunchasini majoziy-tamsiliy tarzda "L.T." dostonida teranroq anglatadi. Uningcha, ishq vodiysidan so'ng keladigan ma'rifat vodiysining o'ziga xos xususiyatlari bor. Suluk yo'lidagi har bir solik bu vodiyga qadam qo'yar ekan, o'z iste'dodi va harakatiga ko'ra "hollarni muxtalif" topib, ma'rifat hosil qiladi. Bu yo'lda Muso ham, Fir'avn ham, Mahdi-yu Dajjol ham, shoh ham, gado ham o'z hadafini ko'zlab yo'lga tushadi. Bu yo'lda taraqqiy ham, tanazzul ham, kufr ham, iymon ham mavjud.

Yuz tuman rahrav ko‘rarsen beqaror,
Har biri bir yo‘lni aylab ixtiyor.

Haqqa eltuvchi yo‘llarning ko‘pligidan ajablanmaslik kerak. Chunki shoirning uqtirishicha, “Nabiyi rohbar”, “Haq sari safar qiluvchilarning yo‘llari maxluqotning nafaslari adadicha”, deb aytgan. Ammo har qaysi yo‘lchi o‘z yo‘li b-n faxrlanadi, o‘zinikini haq, deb biladi. Hosil qilgan bilim va tajribasi har birining ma’rifatidan darak beradi. Ma’rifatdagi tafovut ham ana shunda:

Bo‘ldi o‘z irfoni har kimga sifat,
Ko‘p tafovut qildi paydo ma’rifat.

Har kishi o‘z tavrida istab kamol,
Qildi vodiy tay qilurg‘a ishtig‘ol.

Bu vodiyda suluklar va istaklar turlicha, kimdir manzilga yetgan, kimdir yo‘lda qolgan:

Kimni aylab ma’rifatqa muttasif,
Aylabon ul xayl holin muxtalif.

Har kishi sayrin kamolicha qilib,
Qurbin oning hasbi holicha qilib.

Ammo bularga qaramasdan, “ma’rifat xurshidi” porlab chiqqanda, har kim o‘z nasibasiga ega bo‘ladi, chunki, pokiza “nur” zohir bo‘lgandan keyin har kimning kamolga yetishiga sabab bo‘ladi.

N. o‘z fikrlarining tasdig‘i sifatida “ko‘rlar va fil” b-n bog‘liq tamsiliy hikoyani keltiradi. Unda bayon qilinishicha, bir kishi bir necha ko‘rlardan: “Fillarni ko‘rganmisizlar?”, deb so‘raydi. Ular “Ha” deb ko‘rgan-bilganlarini aytishadi. Biri filga qo‘l tekkizib, “Ustun”ga, boshqasi qorniga qo‘l uzatib “Ustunsiz” narsaga, xartumini silagan “ajdarho”ga, tishlarini ushlagan “ikki suyakka”-ga, qulog‘ini silagan “ikki harakatlanib turgan yelpig‘ich” va h.k.larga o‘xshatishadi. Ular filni ko‘rmaganliklari u-n o‘z bilim va tajribalaridan kelib chiqib, ulkan hayvonni xilma-xil sifatlaydilar. Ko‘rlarning so‘zini eshitib turgan bir mohir filbon ularni gapdan to‘smay, hammasi chin gapirayotgani, sifatlar bir yerga jamlanganda, fil haqida ma’rifat hosil bo‘lishini aytadi:

Lek jam’ o‘lg‘onda bu barcha sifat,
Pilg‘a hosildur ul dam ma’rifat.

Demak, xulosalardan xulosa chiqarish, voqea va holatlarga basirat va farosat ko‘zi b-n nigoh tashlash ham ma’rifat nishonalaridan ekan.

N. suluklarning ko‘pligi va farqliligini ta’kidlab, ularning ko‘pi “quyqa”, sof, tozasi esa oz deydi. Mana shu oz qismi hazrat Payg‘ambar (s.a.v.) shariatiga muvofiq bo‘lgan to‘g‘ri va pokiza yo‘llardir:

Chun suluk ichra ko‘p erdi ixtilof,
Ko‘pragi durd erdi, lekin ozi sof.

Kim ravishda sofi erdi mashrabi,
Bor edi ul tobe’i shar’i nabi.

Naqshbandiya tariqatiga mansub N.ning o‘zi ham ma’rifat ahlidan bo‘lishni xohlaydi. She’r nihoyasida, soliklar yetadigan ma’rifat manzillarini bosib o‘tishni va O‘zining “visol”iga yetishni Tangridan iltijo qilib so‘raydi:

Ma’rifatda, yo Rab, ul yo‘lkim ango,
Solikekim kirsa yetkurgay sango.

Foniyi ovvorani ul yo‘lg‘a sol,
Qat’ qilg‘och yo‘l, nasib etkil visol.

N. “N.M.” muqaddimasida M. haqida shunday deydi: “Haq subhonahu va taolo maxluqotda bani odamdin sharifroq va biyikroq (ulug‘roq) xalq qilmaydur, nevchunki, ma’rifatulloh ganjining amini va mahrami uldur”.

N.ning ta’kidlashicha, ma’rifat ko‘ngulda hosil bo‘lgach, solikda chin ma’noda basirat paydo bo‘ladi. Shoir, deyarli, barcha asarlarida ko‘ngil haqida rang-barang talqinlar bayon qilgan. Jum-

ladan, u “M.Q.” asarida “Ko‘ngul ma’rifat bog‘idin va vahdat rayohinining esgan nasimidur va ruhoniyat gulistonidin oshnoliq gullarining shamimidur. Husn malohatin idrok qilg‘uvchi ham, ko‘ngul va ishq o‘ti yolinig‘a yoqilg‘uvchi ham ko‘ngul. Xo‘blar husni tuzig‘a kaboblig‘ qilg‘uvchi ham, ul va jamol latofati ganjig‘a har oblig‘ qilg‘uvchi ham ul”. Ammo, avvalo, mahbubning jon ichidan “jilva” qilishi u-n ko‘ngulni “naqshi mosivo”dan, ya’ni, Haqdan boshqa narsalardan xoli qilish kerak:

Desang, Navoiy, jon aro mahbub
bo‘lg‘ay jilvagar,
Avval ko‘ngul ko‘zgusidin mahv
ayla naqshi mosivo.

Orifning lug‘aviy ma’nosi tanuvchi, biluvchidir. So‘fiylarning tushunchasida orif irfon sohibi. Tom ma’nodagi haqshunos. Ba’zilarining ta’kidlashicha, ilm – aqlga, irfon – tuyg‘ularga asoslanadi. Orif Alloh tomonidan baxsh etilgan laduniy ilm vositasida uning mavjudligini idrok etadi va mavhum borliqdan kechib, Tangri yodi b-n umr o‘tkazadi, Alloh sifatlarini, fe’llarini va ismlarini kashf va mushohada yo‘li ila taniydi. Orifi billah deganda, ma’rifat va irfon egasi, komil inson, hikmat va asrorga oshno, fano martabasiga erishgan, valiy tushuniladi. Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) shuncha ilm va ma’rifat bilan Allohga duo qilib: “Mo arafnoka haqqa ma’rifatika”, ya’ni Allohim, biz seni haqqi rost b-n taniy olmadik”, deb aytar edilar. N. “B.V.” devonida orifning yuksak holidan xabar berib, shunday deydi:

Ma’rifat naxlidin ul orif hamono topti bar,
Kim tafakkur birla fahmi “mo arafnok” ayladi.

Shoir mazkur baytida ma’rifatni bir daraxtga, daraxt mevasidan bahramand bo‘lgan kishini esa orifga qiyoslamoqda. Orif bo‘lgandan keyin esa u tafakkurga ega bo‘ladi va mushohada qilib, Haq ma’rifatining sirriga yetib bo‘lmasligini, Payg‘ambar alayhissalom so‘zlarining hikmatini fahmlay boshlaydi.

Faqr ko‘yida musallam tut, ne qilsang istimo’,
Orif ermas har kishikim qilsa irfon birla bahs.

Ya’ni, oriflik, bu – o‘zida hosil bo‘lgan ma’rifatni pinhon tutish, uni birovga oshkor etmaslik, faqrlik maqomida qolib, sirni asrashdir. Agar Haq asrorlarini oshkor etsa, u haqiqiy orif emas. N. shuning u-n ham orif holidan bahs etganda, “quyosh aksi” daryoga tushsa, uning “suvin toshurmog‘i” mumkin bo‘lmaganidek, orifga ham “ganji fayz” yetganda, “dam urmay” uni oshkor qilmaydi, deydi.

Oriflikning yana bir nishonasi xotir sahifasida faqat yor so‘zi, yor xayoli o‘rin olishi, vahdat sofligiga turli xavotir va shubhalarni qo‘shmasligi lozim.

Safhayi xotirda ey orif, keraktur yor-u bas,
Sofiyi vahdatqa hoshoki, xavotir qotma ko‘p.

Ma’rifatga erishgan, tiriklik va o‘lim mohiyatidan xabardor bo‘lgan inson o‘limni Allohning taqdiri, deb biladi, tabiiy qarshi oladi, fojia sifatida qabul qilmaydi. Aksincha, eng og‘ir fojia, jaholatda qolib o‘lish, qalbi yumuq holda dunyodan ketishdir. N. shunga ishora qilib, deydi:

Ey Navoiy, jahl ila o‘lmak qatiq ishdur, vale
Chun kamoli ma’rifat kasb o‘ldi, ne nuqson o‘lum.

N. payg‘ambar (s.a.v.) haqida g‘azal yozish, u Zotning sifatlarini madh etish oson emasligini ta’kidlar ekan, bu borada ortiqcha maddohlik va bilag‘onlik qilishdan ehtiyot bo‘lishga chaqiradi. Chunki Qur’oni Karimda Alloh tarafidan maqtalgan Zotni vasf qilish oson emas.

Sen kim-u na’tin demak, til asrag‘il ko‘p nuktadin,
Ey Navoiy, ma’rifatni qilma har ne bor har xarj.

N. M.ga yetishgan bir qator oriflarni “N.M.”da nomlarini qayd etib, ularning oriflar haqidagi fikrlarini ham keltirib o‘tadi. Jumladan, Shayx Yahyo bin Mu’oz Roziy: “Zohidlar dunyo g‘u-

rabosi(g‘ariblari)durlar va oriflar – oxirat g‘arabosi”, desa, Shayx Abu Said Xarroz hazratlari: “Oriflarning riyosi muridlarning ixlosidan yaxshidir”, deydi. Shayx Tohir Maqdisiyga ko‘ra: “Agar orifning nurin (odamlar) ko‘rsalar, kuygaylar va agar orif ham (Allohning) vujud nurin ko‘rsa, kuygay”. Shayx G‘aylon Samarqandiy: “Orif Tengridan Tengrig‘a boqar va olim dalildin (Tengriga boqar)”. Shayx Abdulloh bin Muhammad Har rozga ko‘ra esa: “Ochlik – zohidlar taomi, zikr – oriflar taomi”dir.

Ko‘rib o‘tganimizdek, N. ijodida M. tushunchasining rang-barang talqinlari ko‘zga tashlanadi. Ularni to‘g‘ri anglash shoir ijodining tasavvufiy mohiyatini yaqindan idrok etishda yordam beradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011.; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Бертельс Е.Э. Избранние труды. Суфизм и суфийская литература. – М., 1965. Ислом энциклопедияси.Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат нашриёти. – Т., 2004.; Абу Ҳомид Ғаззолий. Кимиёи саодат. – Т., 2005.*

S.R.

MAQSUD ANDIJONIY (XV asr, Andijon – Hirot) – N.ning zamondoshlaridan, bastakor, hofiz. Andijonda tug‘ilib, Hirotda kamolot kasb etgan. Mavlono Ohiy Hiraviyning shogirdi. Bir muddat Sulton Husayn Boyqaro saroyida xizmat qilgan. Ustod Shodiy, G‘ulom Shodiy, Hofiz Ushshoqiy, Hofiz Mirak Buxoriy, Xoja Hamza Toshkandiy kabi o‘z davrining mashhur san’atkorlari b-n hamkorlik qilgan. Shayboniyxon Hirotni zabt etganidan so‘ng (1507), boshqa mashhur san’atkorlar kabi o‘zi b-n uni ham Buxoroga olib kelgan. U “Tarona”, “Amal”, “Peshrav” kabi kuylar muallifi. Jomiy g‘azallariga “Savt” nomli go‘zal va ta’sirchan kuy bastalagan.

Ad.: *Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. Душанбе, 1988.; Зайниддин Восифий. Бадоеъ ул-вақоеъ. – Т., 1967.*

E.O.

MAQSUD HIRAVIY (XV asr, Hirot – Buxoro) – shoir. O‘q yasovchi hunarmand usta ekanligi u-n Tirgar nomi b-n ham mashhur bo‘lgan. N. “M.N.” tazkirasida uni o‘ziga yaqin bo‘lgan muammonavis Mavlono Faxriddinning ukasi sifatida tanishtiradi. G‘azal yozishga ishtiyoqi baland ekanligini aytib, ijodidan namuna sifatida quyidagi matla’ni keltiradi:

Peshi mehri ro‘yi o‘ rah basta shud ohi maro,
To az in nabvad g‘ubor oinayi mohi maro.

Tarj.: Oy yuzi oyinasiga g‘ubor qo‘nmasligi u-n yuzi quyoshi oldida ohim yo‘li to‘sildi.

Lekin uning ruboiyga mayl-u rag‘bati ham kuchli bo‘lib, turli mavzularda ko‘plab go‘zal va purma’no ruboiylar yozgan. Umrining oxirida Buxoroga keladi.

Hasanxoja Nisoriyning yozishicha, dunyoga etak silkigan darveshtabiat va ozodavash kishi bo‘lib, Buxoroda yolg‘iz yashagan. Bu yerda Darvesh laqabi b-n tanilgan. Maxdumi A’zamga muridligi ham bo‘lgan. O‘qchilik kasbi kabi ta’bi ham o‘qdek to‘g‘ri va yuksak edi. “Qayerda rangin ma’nolarga yetishsa, nazar o‘qini unga otib, nishonga urganini o‘z xotiriga joylab olardi. Va latif ta’bi latifaga moyil edi va o‘zi xususida ko‘plab latifalar aytardi”. Quyidagi matla’si juda mashhur bo‘lgan:

Xo‘boni Hiri xo‘btar az obi hayotand,
Bisyor raboyanda-vu shirin harakotand.

Tarj.: Hirot go‘zallari obi hayotdan ham yaxshiroqdirlar – ular nafis harakatlari b-n ko‘ngillarni zabt etadilar.

Begim masjidida tor bir hujrasi bo‘lib, shu yerda 90 yoshida vafot etadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ҳасанхожа Нисорий. Музаккири аҳбоб. – Т., 1993; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 2. – Душанбде, 1989.*

E.O., B.R.

MAQSUDOV Badriddin (1956, Konibodom, Tojikiston) – adabiyotshunos olim, f.f.d-ri (2007), prof. (2010). Fors-tojik mumtoz adabiyoti tarixi va zamonaviy tojik adabiyotining turli mavzularida ilmiy izlanishlar olib boradi. Tojikiston, Eron va Afg‘oniston olimlari tomonidan M.B. Kamol Xo‘jandiy, Fahruddin Iroqiy asarlarining ko‘zga ko‘ringan tadqiqotchisi sifatida e’tirof etilgan. Uning “Kamol Xo‘jandiy hayoti va ijodi” (1994), “Sayre dar g‘azaliyoti iroqiy” (2007), “Fehristi nusxahoi dastnavisi Mazkazi farhangii prof. Sh.Huseynzoda” (2007), “Chustucho‘ dar ahvol va osori Iroqy” (2009), “Adabiy tadqiqot usuli” (2012), “Xo‘jandning Andalebi bog‘i” (2013) va boshqa bir qator kitoblari nashr etilgan. M.B. o‘zbek olimlari E.Rustamov, E.Shodiyev, shuningdek, turkologlar A.Sherbak, M.Saliye, L.Klimovich va boshqalarning fikriga ko‘ra, Xo‘jandiyning turkiy “Latofatnoma” qo‘lyozmasi Kamol Xo‘jandiyga tegishliligini aniq dalillar bilan rad etgan (“Latofatnoma” va mansubiyati on ba Kamoli Xujandiy. Axboroti AF RSS Tojikiston. Ser.: sharqshunosi, ta’rix, filologiya. – 1990. – № 3. – Sah. 47-53).

Olimning yana bir xizmati shundaki, u N. qalamiga mansub “N.N.” asarining qadimiy qo‘lyozmasini tavsiflagan. Mashhad (Eron) shahrida (07-09.02.2015) bo‘lib o‘tgan “Amir Navoiy tafakkuri, osori va xizmatlari” mavzusidagi xalqaro anjumanda ilk bor tadqiqotining natijalarini taqdim etdi. Uning “Navoiy devonining yangi topilgan qadimiy nusxasi” sarlavhasi ostida “Amir Alisher Navoiyning fikrlari, asarlari va xizmatlari” xalqaro anjumani maqolalariga oid kitobda olim ma’ruzasidan parcha nashr qilingan (fors tilida). Keyinchalik olim Tojikistonda “Alisher Navoiy kutubxonasining yangi topilgan qo‘lyozma nusxasi” sarlavhasi ostida tadqiqotlarini maqola shaklida chop etdi (Amir Alisheri Navoiy va tojik adabiyoti. Xalqaro anjuman materiallari, Xo‘jand, 2016-yil, 15-16 aprel, 4-17-betlar). Xuddi shu maqola Afg‘oniston Islom Respublikasida ham nashr qilindi (Bag‘lon universitetining ilmiy jurnali, 2017-y. 4-son. 22-36-betlar). Mazkur nusxa DMT prof. Sh.Huseynzoda nomidagi madaniyat markazida 736 raqami b-n saqlanadi. M.B.ning fikrlariga ko‘ra, nusxaning to‘rt joyida raqam va harflar b-n hijriy 882-y. yozilgan. Bu sana N. tavalludining 36 yilligiga to‘g‘ri keladi. Nusxaning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish natijasida, u N.ning “N.N.” devoni ekanligini va asar XI asrda (milodiy 17 yil) hijriy 882-y.da yozilgan eng qadimgi nusxadan ko‘chirilganligi ma’lum bo‘ldi. Unda 34 betdan iborat so‘zboshi mavjud. Nusxaning varaqlari raqamsiz, lekin ular oxiriga yetmagan. Muqaddimaning boshi va devonning asosiy qismida maxsus lavha bor. Bu nusxada shoir davridagi 598 g‘azal va boshqa janrdagi ash’orlari jamlangan. Darhaqiqat, N. ijodini o‘rganishda muhim manba sifatida xizmat qiladi, shuningdek, u matnshunoslik u-n jiddiy ahamiyatga ega, mazkur asarning boshqa nusxalari b-n qiyoslashda juda qo‘l keladi. Shoirning ko‘pgina g‘azallarini ushbu nusxa matnidan kelib chiqib tuzatish mumkin. M.B.ning mazkur maqolasi o‘zbekcha tarjimada O‘zbekistonda “O‘zbek tili va adabiyoti” ilmiy jurnalida e’lon qilingan (2016, 6-son).

Ad.: *Алишер Навоий девонининг янги топилган қўлёзма нусхаси. Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 2016. – № 6. Собиржонов С. Донишманди дақиқназару фасеҳбаён / Озодагон. – Душанбе, 22 июни 2016. – Саҳ.12; Абдусатторов А. Муҳаққиқ ва омузгори адабиёт // Адабиёт ва санъат. – Душанбе, 16 июнь 2016.*

M.A.

MAG‘RIBIY – “S.I.” dostonida Doroning “Fildek gavdali, fildek kuchli” pahlavoni. Yo‘lbars terisidan to‘n kiygan bu pahlavon Boriq Barbariyni band etib, o‘z yurtiga olib ketadi. N. uni qavmining bahaybat, dovyurak, dag‘al vakili sifatida tasvirlaydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

A.A.

MAQTA’ (ar. − biror narsaning uzish, kesish joyi) − g‘azal va qasidaning oxirgi, yakunlovchi bayti. Unda she’r davomida ifodalangan fikr-u g‘oyalar, tasvirlangan tuyg‘u-kechinmalar umumlashtirilibgina qolmay, shoirning o‘z-o‘ziga yoki barchaga qaratilgan xulosasi ham chiqariladi. M.ning ifoda va badiiyat jihatidan go‘zal va yuksak bo‘lishi balog‘at qoidalaridan hisoblanadi. Ta’sirchan so‘zlar vositasida salmoqli ma’noni yuzaga chiqargan bunday baytlar husni maqta’ (q.) ham deyiladi. U kompozitsion jihatdan ham katta ahamiyatga ega bo‘lib, shoirning ahvoli va maqsadini, xohish va istagini ham o‘zida mujassam etadi. So‘nggi baytda shoirning taxallusi keltirilgan bo‘lsa, u bayti taxallus (q.) deb ham yuritiladi. Mumtoz she’riyatda she’rni chiroyli, ta’sirchan va mazmundor qilib yakunlash nihoyatda muhim sanaladi. M. N.ning ishq ichra shoh-u gadoning mavqe-maqomi qiyosi-nisbatiga bag‘ishlangan g‘azali ishq ichra gadolik shoh toj-u taxtidan ham afzalligi haqidagi hikmat darajasidagi quyidagi M. b-n yakunlanadi:

Ey Navoiy, sidq ila bo‘lgil gado ishq ichrakim,
Taxt-u tojin bersa, bu davlatni topmas podshoh.

An’anaga ko‘ra, M.da shoir taxallusi qo‘llanadi, lekin taxallussiz M.lar ham uchrab turadi. Misol uchun Sa’diyning ko‘pgina g‘azallarida taxallus M.dan oldingi baytda keladi. Bu holni N.ning ayrim g‘azallarida ham uchratamiz.

Ad.: *Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 2. – Душанбе, 1989; Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т., 2006; Куронов Д. ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2010.*

E.O., M.A.

MAQLUBI MUSTAVIY – M.M. lafziy san’atlar sirasiga mansub bo‘lib, qalb san’atining 4-turidir. A.Husayniy va A.Taroziylarga ko‘ra, u lug‘atda teskari qilmoq bo‘lib, she’riy istiloh sifatida mazmuni shuki, kalomdagi bir lafzning barcha harflari teskari qilinadi yoki uning ayrim harflarigina teskari qilinadi yoxud o‘sha so‘zni teskari o‘qish demakdir. Shunga ko‘ra, qalb yana bir necha turlarga bo‘linib, uning 4-turi sanalmish – M.M. shunday hosil qilinadiki, bir ibora zikr qilinganda, uni qalb qilib teskari o‘qilsa, o‘sha asl ibora hosil bo‘ladi.

N. o‘z ijodida M.M.ning bir necha o‘nlab go‘zal namunalarini yaratgan holda yetuk adabiyot nazariyotchisi sifatida ham baho berganini ta’kidlash lozim. Xususan, N. “M.N.” tazkirasida “Bovujudi ihtisor maqlubi mustaviy san’atidakim, andin mushkulroq san’at bo‘lmas”, deydi. Va o‘z so‘zini davom ettirib, Mir Atoulloh – “Badoye’ us-sanoyi’” muallifi Atoulloh Husayniyning shoirlik va sanoye’ fanida komilligini quyidagi bayt misolida dalillaydi:

Shakardahano g‘ame nadoriy,
Dayr o daniyi mug‘ona darkash.

Tarj.: Ey shakarlab, hech g‘aming yo‘q, dayrga kelib, bir mug‘ona may ko‘tar!

Bu baytni A.Husayniy ham “Badoye’ us-sanoyi’” asarida mazkur san’at ta’rifi munosabati b-n keltirgan. Zero, 1-misra arab alifbosi asosida teskari o‘qilsa, 2-misra hosil qilinadi. Mir Atoulloh bunda M.M. san’atini yana 4 darajaga ajratib, zikri kelgan baytni eng murakkab – M.M. muvassal (ulangan) turiga namuna o‘laroq keltirgan. Shuning uchun N. bu hodisaga alohida diqqat qilib, yuksak e’tirof etgan.

Shu va shu kabi bir necha misollar N. ba’zan ijodkorlarning adabiy mahoratini belgilashda M.M. san’atida nechog‘li iqtidorliligini mezon

qilib olganini ko‘rsatadi. N. yozishicha, Mavlono Abdulvahhob Mashhadda qozilik qilgan. U donishmand, ilmli kishi bo‘lib, mamlakatdagi shoir va san’atkor kishilar unga shogird tushishgan. N. ana shunday nozik didli kishilardan biri M.M. san’ati talablari asosida, ya’ni “Murode doram” deb arz qilganida, Mavlono Abdulvahhob “Baroyad yo Rab” deb javob bergani haqida xabar berib, tahsinlar aytadi.

Shuningdek, N. tazkirada Mavlono Shihobning so‘z aytish salohiyatidan bahs yuritib, fikrining isboti sifatida bir bayt ilova etadi:

Mushi har i farrux shavam,
Darki raqam qar kard.

Haqiqatda, baytda shoir she’riy nazokatini ustalik b-n namoyon etgan bo‘lib, har ikki misrada ham M.M.ning ajoyib ko‘rinishini ijod qilgan.

Adabiyotshunos Y.Is’hoqov shoir “X.” sarlavhalarida mazkur san’atga murojaat qilganini ta’kidlab o‘tadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Ҳусайний А. Бадойиъ ус-санойиъ (Аруз вазни ва бадиий воситалар ҳақида). Форс тилидан А.Рустамов таржимаси. – Т., 1981; Шайх Аҳмад Тарозий. Фунун ул-балоға. Ўзбек тили ва адабиёти. 2002, №5.*

S.O‘.

“MAHBUB UL-QULUB” – N.ning umri so‘ngida yozgan falsafiy-didaktik mazmundagi nasriy asari. Unda g‘oyat mazmunli va sermashaqqat hayoti davomida to‘plagan boy tajribalari va xulosalari jamlangan. Asarni yaratishdan ko‘zlagan maqsadini adib kitob muqaddimasida shunday bayon qiladi: “Maqsadim shuki, har yo‘lda yurdim, olamdagi har nav’ odamni ko‘rdim, katta-kichikning fe’l-atvorini o‘rgandim, yaxshi-yomonning xislatlarini tajribadan o‘tkazdim, yaxshilik va yomonliklarning sharbatini ichib, zahrini totib ko‘rdim. Baxil va pastkashlarning zahmini, saxovatli kishilarning malhamini ko‘nglim darhol sezadigan bo‘lib qoldi. Zamon ahlidan ba’zi hamsuhbatlarim va davron kishilaridan ayrim do‘stlarim bu hollardan xabarsiz hamda ko‘ngillari bu yaxshilik va yomonliklardan asarsizdir... Shu jihatdan ularni bu hollardan ogoh va xabardor qilmoq vojib ko‘rindiki, toki ulardan ham har toifaning xislati haqida tasavvurlari va har tabaqaning ahvoli haqida tushunchalari bo‘lgan”.

Demak, N.ning bu asari markazida inson masalasi yotadi. U inson dardini chekadi, insoniylikka yarashiqli fazilatlarni madh etadi, unga zid bo‘lgan illatlarni esa qoraladi. Insondo‘stlik va xalqparvarlik “M.Q.”ning bosh g‘oyasini belgilaydi. Muqaddima hayotning barcha baland-pastliklarini ko‘rgan, hamma achchiq-chuchuklarini totgan, nihoyatda tafakkuri teran insonning ahvoli ruhiyatini ochib beradi. Asar o‘zaro bog‘liq 3 qismdan iborat.

Asarning birinchi qismi “Xaloyiq ahvoli va af’ol va ahvolining kayfiyati” (ya’ni, kishilarning ahvoli, fe’l-atvori va gap-so‘zlarining ahamiyati) deb ataladi, qirq fasldan iborat.

Asos e’tibori b-n bu qismda jamiyatdagi turli ijtimoiy tabaqalarning mavqeyi, o‘z burchiga to‘g‘ri, halol munosabatini N. asarida adolatli shohlar haqidagi qarashlaridan boshlaydi. Garchi o‘z zamonasining “jafo-vu dunlik”larga to‘ra ekanligini ko‘ra olgan, hamisha har sohada mehnat ahlining manfaatiga xizmat qilib, xalq boshiga tushgan jabr-u sitamlardan behad azoblar chekkan N. g‘azallarining birida:

Yuz jafo qilsa manga, bir qatla faryod aylaram,
Elga qilsa bir jafo, yuz qatla faryod aylaram,-

deb yonib yozgan odil shohlarda, islompanoh bek va fuqaroparvar vazirlarda ko‘rdi. U shohlarning jamiyatdagi o‘rnini mustasno deb bildi. Shoh odil bo‘lsa, mamlakat obod, xalq farovon bo‘ladi, – deb biladi muallif.

N. odil shohni zolim badjahl podshohlarga qarshi qo‘yadi: “Odil shoh ko‘zgu va aning uchasidur-.U yorug‘ subh, bu aning qorong‘u kechasidur”.

N. nufuzli tabaqalar, chunonchi, nomunosib noib (o‘rinbosarlar), vazirlar, sadrlar, yasovul va lashkarlar, qozi va muftiylar, shuningdek, shayx, va’zxon, qissachi, bozorchi kosiblar, mirshablar va boshqa ijtimoiy guruhlar haqida so‘z yuritar ekan, o‘ta tanqidiy fikrlarni o‘rtaga tashlaydi.

N. dehqonlarga bag‘ishlangan faslda, ularning mehnatiga madhiya kabi jaranglovchi fikrlarni bayon etadi: “Olam ma’murlig‘i alardin, olam ahli masrurlig‘i alardin”.

N.ning tahsiniga sazovor bo‘lgan dehqon mehnati tufayli jamiyatning asosiy moddiy omillari yaratilgan. Buni N. alohida uqtirib o‘tadi: dehqon don sochishdan boshlab qushlar-u jonivorlar undan bahramand, butun borliq obod, hatto marhumlar ruhi ham undan shod. Shoh ham, gado ham dehqonning himmatiga mahtal. Oxirida N. yozadi: “dehqonning bir dona socharida bu holdir, o‘zga ishlari ta’rifi maholdur”.

N.ning mudarrislar, kotiblar, tabiblar haqidagi fikrlari ham g‘oyat e’tiborli. Jumladan, kotiblar o‘sha davrda ma’rifat tarqatuvchilarning safidan faxrli o‘rinni ishg‘ol etgan. Agar kitobat san’ati mashaqqatlari, asarlarini ko‘paytirish va tarqatish mushkulligi nazarga olinsa, adib fikrlarining ahamiyati yanada oshadi. Kotiblar orasidagi loqayd, badxat yoki savodsizlariga N. qat’iy tanbeh beradi. Asardagi adabiyot va san’at ahliga bergan bahosi N. dostonlari va devonlari tarkibidan fikrlariga hamohang bo‘lib, bu toifaning xalq nazdida burchi xususdagi qarashlarining xulosasi sifatida muhimdir. N. so‘z san’atkorlarini shunchaki shoirlik da’vosi yoki shon taratish uchun emas, balki “El fayzi uchun”, “bag‘oyat arjumand benihoyat sharif va dilpisan” she’riyatni yaratish yo‘lidagi mas’uliyatli ijod bilan shug‘ullanishga da’vat etadi. N. kishi ruhiga ta’sir etish qobiliyatiga ega bo‘lganligi uchun sozandalar va xonandalar san’atining asl mohiyati va fazilatini samimiyat hamda hurmat bilan ta’rif qiladi. Ayolning oiladagi muqaddas mavqeyi va jamiyatdagi ijtimoiy o‘rnini ham e’tirof etadi.

“M.Q.”ning ikkinchi qismi asosan axloqiy masalalarni qamrab oladi. 10 bobdan iborat bu qismi “Hamida af’ol va zamima hisol xosiyatida (ya’ni yaxshi fe’llar va yomon xislatlar haqida) deb ataladi va insonni bezaydigan fazilatlar va uni tubanlashtiradigan xislatlar tahlil qilinadi. Bu axloqiy tushunchalar jamiyat tabiatini belgilagani uchun har bir mutafakkirning o‘z munosabatini bildirib o‘tishi joiz edi. N. odob va tavozu’ni bir-biriga daxldor axloq normalari sifatida talqin qiladi. Tavozu’ takabburlikning aksi bo‘lgan xokisorlik va kamtarinlikni anglatadi, tavozu’li odamga xalqning mehri oshadi, bunday kishi b-n yaqinlashishiga hamma intiladi, do‘stlik chamanida yangi-yangi gullarning ochilishiga sabab bo‘ladi. Chamandagi har bir gul esa o‘ziga xos anvoyi atir va chiroyga ega bo‘lib, butun gulistonning ko‘rkam bo‘lishini ta’minlaydi. Bu teran fikrlar insonlarni do‘stlikka, birodarlikka chorlovchi da’vatdir. N. tavozu’ning qutbiy aksi bo‘lgan takabburning o‘ta zararli mohiyatini ochib tashlaydi.

Ishq axloqiy qarashlariga kelganda, N. asos e’tiborini hayotiy, keng ijtimoiy ma’nodagi hayot ne’mati, nashidasi bo‘lmish ishq ta’rifiga qaratadi. Ayni choqda, ishqi haqiqiy (siddiqlar ishqi)ning ham tabiati va maqsadini ochib beradi.

U vafoni ta’riflar ekan, uni ham topiladigan gavhar deydiki, bu fikrda bir olam mazmun bor. Ulug‘ shoir vafoni hayo bilan uzviy bog‘liqlikda oladi: “Har ko‘ngulnikim, vafo maskan qilur, hayo ham qilur va har maskandakim, ul topilur, bu ham topilur. Vafosizda hayo yo‘q, hayosizda vafo yo‘q”.

“M.Q.”ning uchinchi qismi “Mutafariqa favoyid va amsol surati” (ya’ni, turli foydali maslahatlar va maqollar haqida) deb nomlanadi va nihoyatda keng mazmunli va rang-barang pand va hikmatlarni o‘z ichiga oladi. Unda odam va odamiylik haqida, insoniy fazilatlar to‘g‘risida asrlar mobaynida xalq tajribasi va bilimlarining sarasi sifatida jamlangan fikrlar, N.ning o‘z hayot tajribasining natijalari, xulosalari beriladi. N. “oz so‘z – soz so‘z” degan xalqning dono hikmatiga

to‘la rioya qiladi va deyarli har bir teran fikrni g‘oyat qisqa va aniq jumlaga sig‘dirib, “tanbeh” (q) deyilgan muxtasar parchalarda bayon etadi. Bu dono o‘gitlar, qanotli hikmatlar xalqchillik g‘oyasiga egadir. Unga rioya qilgan odam barkamol inson demakdir. Bularni samimiy kuyunchaklik bilan targ‘ib va tashviq qilar ekan, N. g‘oyat keskin va hujumkorlik b-n sharafli inson u-n, binobarin, jamiyat u-n zararli xulq-atvor, sifatlarni qoralaydi.

“M.Q.”da nutqning tabiati ochib beriladi. “Nodon pandida, - deydi N. xato muqarrar va dushman nasihatida firib mutasavvar”, ular b-n muomalada aql va tadbirga tayanishni maslahat beradi.

N.ning til va nutq axloqi haqidagi qarashlari hamma asrlar va hamma avlodlar u-n dolzarbligini yo‘qotmay keladi. “Tilga ixtiyorsiz – elga e’tiborsiz”, “Yomon tillik, andoqkim, el ko‘nglig‘a jarohat yetkurur, o‘z boshiga ham ofat yetkurur” kabi hikmatlari zaminidagi fikrlari hozirgi kun u-n ham g‘oyat muhim.

“M.Q.”ning bu qismida, shuhratparastlikning ziyoni, nodonlikning kasofati, yomon qilig‘liq va badxo‘rlikning zarari, noo‘rin hazil qilishlikning hurmatsizlik keltirishi, qarining bachkanaligi oqibati, fitnachi olim va baxil davlatmandning tabiati, dard ahli nafsining kuydiruvchi harorati va boshqa ko‘p axloq qoidalari yuzasidan qimmatli fikrlar aytiladi.

N. ilm ahllarini nihoyatda qadrlagan, mamlakat obodonligi, osudaligi, xalq farovonligini ta’minlashda ularga katta umid bog‘lagan. Lekin ilm o‘rganib, uni amalda tatbiq etmagan, ya’ni ilmini xalq, yurt xizmatiga sarflamagan olimlarga o‘z nafratini bildirgan. Olimlik axloqi haqida ham ajoyib fikrlarni bayon etgan: “Olim bir johilni qarshisiga o‘tqazib uni mulzam qilishni istasa, bu olimning o‘zi uchun haqoratdir. Olim, avvalo, ilmining daraja va salmog‘ini asrashi kerak, gavharni sinab ko‘rish uchun toshga urmaslik lozim”. Demak, olim o‘z bilimi qadrini, o‘z mavqeyini yaxshi tushunishi va ularni suiiste’mol qilmasligi darkor.

“M.Q.”dagi ilm-fan haqidagi N. ilgari surgan o‘gitlar ma’rifatparvarlik g‘oyalarining uzviy qismidir. Butun umri davomida ilm-ma’rifatni targ‘ib qilgan, uni rivojlantirishda fidoyilik ko‘rsatgan N. mashaqqatlar chekib, ilm-fan o‘rganganlarni xiradmandlar deb olqishlagan, sidqidildan ardoqlagan. Uning “oz-oz o‘rganib dono bo‘lur, qatra-qatra yig‘ilib daryo bo‘lur” kabi so‘zlari xalq aforizmiga aylanib ketgan.

N.ning yana bir hikmati “saxv-u xato bashariyat lozimidur” (ya’ni, inson xato qilishi mumkin) degan ma’noni anglatadi. Demak. Odam mutlaqo xatosiz yashashi qiyin. Ammo hamma mardlik va jasorat shundaki, aql va iroda bilan yo‘l qo‘yilgan xatoni anglay olish va vaqtida uni tuzata bilish demakdir.

“M.Q.” N.ning siyosiy, ijtimoiy, axloqiy qarashlarini “qatrada osmon aks etadi” qabilidagi mo‘jaz, teran bir tarzda namoyon qiladi. Adib o‘zining yuksak orzulari, nurli tilaklarini, eng pokiza tuyg‘ularini, dono o‘gitlarini asarda o‘ziga xos qat’iylik b-n teran mazmun va serjilo badiiy bo‘yoqlarda bitib qoldiradi.

“M.Q.” yuzasidan A.Hayitmetov, S.G‘aniyeva, Q.Ergashev, Sh.Hayitov kabi adabiyotshunoslar tadqiqot olib borishgan. Asar A.Tilavov va I.Saydullayev tomonidan hozirgi o‘zbek tiliga tabdil qilingan (2018).

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. Сўзбоши. – Т., 1983; Ҳфйитметов Аю Алишер Навоийнинг адабий-танқидий қарашлари. – Т., 1968; Ўзбек адабиёти тарихи. II т. – Т., 1978; Ўзбек насри тарихидан. – Т., 1982; Ҳайитов Ш. Алишер Навоий «Маҳбуб ул-қулуб» асарининг манбалари ва ғоявий-бадиий таҳлили: филол.фан. номз....дисс. – Самарқанд, 1997; Жабборов Н. Маоний аҳлининг соҳибқирони. – Т., 2021; Эргашев Қ. Алишер Навоийнинг насрий услуби масалалари. – Т., 2021.*

S.G‘., M.A.

MAHDIY ASTROBODIY (t.y.n. – 1548, Astrobod) – shoir. Adabiy manbalarning ma'lumot berishicha, fozil, donishmand, darveshtabiat kishi bo‘lgan. Xushta'blik, muloyimlik, faqirlik, miskinlik kabi fazilatlarni o‘zida jamlagan. U asosan g‘azal yozgan, lekin merosidan nihoyatda oz namunalar turli bayoz va tazkiralarda saqlanib qolgan. Taniqli shoir Nizomiddin Muammoiy Astrobodiyning tug‘ishgani. N. "M.N." tazkirasining 3-majlisida uning astrobodlik ekanini aytib, mashhur bir g‘azalining matla'sini keltiradi:

Soqiy, nabuvad beadabiho ajab az mo,
Mo mardumi mastem, nayoyad adab az mo.

Tarj.: Ey soqiy, bizdan beadabliklar sodir bo‘lishining sira ajablanarli joyi yo‘q, chunki biz mast kishilarmiz – bizda adab nima qilsin?

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Тазкираи Тўҳфаи Сомий. – Теҳрон, 1347 (ҳ.-ш.); Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 2. – Душанбе, 1989.*

E.O.

MAHJURIY (Taxallusi; to‘liq ismi: Muhammadxon Is'hoq o‘g‘li Mahjuriy) (1889–1973, Andijon) – shoir, olim. Ma'rifatli oilada tavallud topgan bo‘lib, otasi mulla Is'hoq o‘z davrining ulamolaridan, onasi Hamrobibi otin bo‘lib, 40 yilga yaqin maktabdorlik qilgan. Oilada boshlang‘ich savodini chiqargan yosh Muhammadxon Xo‘janddagi Miyon Hazrat madrasasida tahsil olgan. 15 yoshida Xo‘janddan qaytib, Andijon Jome' madrasasida o‘qishini davom etiradi. 20 yoshida hofizi Qur'on bo‘ladi. Shu b-n birga, andijonlik Abdulmajid qozi Hofizdan xattotlik sirlarini o‘rganib, mohir xattot bo‘lib yetishadi. Xotiralarida 33 yoshida o‘z zamonasining barcha asosiy ilmlarini egallagani haqida ma'lumot beradi.

Yoshligidan M. taxallusi b-n she'rlar mashq qila boshlaydi. Qori Zokir, Habibiy, Raqibiy, Ramziy, Sayfiy, Anisiy, Xurram, Ulfat, Huzuriy kabi Andijon adabiy muhiti namoyandalari b-n tanishib, ular b-n ijodiy hamkorlik qiladi. XX asrning 20-yillaridayoq shoir sifatida taniladi. M. madrasa tahsili davomida faqat fors va arab tillarini puxta biladigan olimgina emas, sharq she'riyati an'analari, xususan, Hofiz, Sa'diy, N., Fuzuliy, Mirzo Bedil tajribalaridan ilhomlanib, she'rlar ijod qilgan shoir sifatida tanilgan. Undan ko‘plab g‘azallar, muxammaslar, she'riy nasihatlar, manzumalar, maktublar meros qolgan.

1927-y.da madrasalar yopilgach, bolaligida o‘zlari ko‘chib borgan Qo‘qonqishloqqa borib, otasi oldida dehqonchilik qiladi. 30-yillarda boshlangan mash'um qatag‘on siyosati tufayli qora ro‘yxatga tushgan M. 1933-y.da O‘shdan panoh topadi. Ko‘zdan yashirin bo‘lish maqsadida Dam olish uyida o‘t yoquvchi bo‘lib ishlaydi.

1938-y.da ilmi va malakasi tufayli M.ni Toshkentga – ulug‘ shoir va mutafakkir N. tavalludining 500 yilligini o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish munosabati b-n tashkil etilgan Navoiy qo‘mitasiga ishga taklif qilishadi. Matnshunoslik hay'atida ishlagan M. mashhur muarrix Xondamirning N.ga bag‘ishlangan "Makorim ul-axloq" asarini, ulug‘ shoirning bir qator asarlarini chiroyli husnixatda ko‘chiradi. "F.Sh" dostonini joriy alifboga ko‘chirish va nasriy bayonini tayyorlashda G‘.G‘ulomga yaqindan yordam beradi. N. asarlari lug‘atini tuzishda ishtirok etadi. Shuningdek, "Ch.D."ni tayyorlashga ham o‘z hissasini qo‘shadi. U.Yusupov taklifiga ko‘ra, Bedilning 600 ta ruboiysini tanlab olib, nasriy va nazmiy tarjima qiladi. Tojikiston davlat teatri iltimosiga ko‘ra, S.Abdullaning "Tohir va Zuhra" pyesasini tojik tiliga tarjima qilib beradi.

Yubiley qo‘mitasidagi 3 yillik (1938–1941) faoliyati davomida N.ning turli davrlarda ko‘chirilgan qo‘lyozmalarini sinchiklab o‘rganib, ularni o‘zaro qiyoslab, kotiblar tomonidan yo‘l qo‘-

yilgan ko‘plab matniy xatolarni topib tuzatadi, ularning nisbatan mukammal nusxalarini nashrga tayyorlaydi va shu jarayonda o‘zi ham n.shunos olim bo‘lib yetishadi. N.ning 26 ta asaridan olingan 48 ming so‘zdan iborat 2 jildli “Navoiy asarlarining mukammal izohli lug‘ati”ni tuzishda ishtirok etadi. Afsuski, noma’lum sabablarga ko‘ra ulug‘ shoir asarlari bo‘yicha eng mukammal bo‘lgan bu lug‘at nashr etilmay qoladigina emas, hatto yo‘qolib ham ketadi.

Ikkinchi jahon urushi tufayli Navoiy qo‘mitasi faoliyati o‘z faoliyatini to‘xtatgach, Andijonga qaytib, oddiy ishchi bo‘lib ishlaydi. 1943-y.dan Andijon teatrida, 1944-y.dan mamlakat rahbari Usmon Yusupov tavsiyasi b-n Yangiyo‘l teatrida adabiy emakdosh bo‘lib ishlaydi. Urush tugagach, yana Andijon teatriga ishga qaytadi. 1947–1950-y.larda Xo‘jaobod tum.idagi kolxozda bog‘bon bo‘lib ishlaydi. Mufti Eshon Boboxonning tavsiyasi b-n 1950-y.da Buxorodagi Mir Arab madrasasiga mudarris qilib tayinlanadi. 1954-y.da Mirzacho‘ldagi Jome’ masjidiga xatib qilib yuboriladi. 1957-y.da Andijonning Buloqboshi tumanidagi Qirg‘izboy Jome’ masjidiga imom-xatib etib tayinlanadi.1958-y.da O‘shdagi Shahidtepa masjidiga imom-xatib bo‘lib ketadi va umrining oxirigacha o‘sha yerda ishlaydi.

M. Qur’on tafsirlarini yaxshi biladigan, hadis ilmi, fiqh, tasavvuf, she’riyat qoidalari, xattotlik san’atlarini puxta egallagan qomusiy alloma edi. Arab, fors, rus, tatar, uyg‘ur, ozarbayjon, qozoq, qirg‘iz tillarini mukammal bilgan. Mumtoz she’riyatning o‘nlab janrlarida qalam tebratib, o‘zidan 10 ming misradan ziyodroq adabiy meros qoldirgan. Xususan, muxammas bog‘lashda mohirligi u-n do‘stlari uni Muxammasxon deb atashar, mahorat b-n bog‘langan taxmislarni o‘qishganida “Mahjurona muxammas bo‘libdi” deb ta’riflashar ekan.

Ko‘p yillik do‘sti va safdoshi Ulfat M. vafoti munosabati b-n bitgan marsiyasida uning n.shunos sifatidagi faoliyatiga mana bunday baho berilgan:

Bedil xazinasining fikri edi kalidi,
Topgan eli Navoiy birla maqomi rif’at.
Ustozi Mir Alisher yo‘lida qancha yillar
Shogirdi sidqpesha, shoyista qildi xizmat.

M.ning ilmiy-ijodiy faoliyatida N. adabiy merosi muhim o‘rin tutadi. M. an’anaviy mavzularda qalam tebratgani bois shakl tanlashda ham an’anaviylik talab va qoidalariga amal qilgani uning g‘azal, muxammas va boshqa janrlarda yozilgan she’rlarida ko‘rinadi. Shoir she’rlarida qo‘llanilgan poetik tasvir vositalari va badiiy san’atlar ham N. tajribasi va ta’siri bilan vobasta bo‘lib:

Netong mayxonaning rindi bo‘lib,
zavqi safo topsam.
Ko‘ringay aksi husning sog‘ari
sahboyi nob ichra, –

singari irfoniy ma’nolarni ilgari surgan mutasavvif ijodkor hamdir.

U buyuk salafining qator g‘azallariga tatabbu’lar qilgan, muxammaslar bog‘lagan. Jumladan,

Bo‘lg‘ach ko‘zimga jilvagar ul sarv qomati,
Chekti ko‘ngilni bir yo‘li husni malohati, –

bayti b-n boshlanadigan g‘azali N.ning mashhur:

Ko‘nglumga sho‘r soldi biravning malohati,
Vahkim, ajab tuz o‘ldi yana zaxmim ofati, –

g‘azali ta’siri va ilhomida unga tatabbu’ o‘laroq yaratilgani shubhasiz.

M. N.ning “Tilagim sening huzuring, talabim sening jamoling”, “Ko‘rgali husnungni zor-u mubtalo bo‘ldum sanga”, “Boda tut, soqiyki, ayyomi visol o‘ldi yana”, “Ko‘ngullar nolasi zulfung kamandin nogahon ko‘rgach” misralari b-n boshlanadigan g‘azallariga mahorat b-n badiiy mukammal taxmislar bog‘lagan. Jumladan, “Mubtalo bo‘ldum sanga” g‘azaliga bog‘lagan muxammasi fikrimizning yorqin dalilidir:

Xasta Mahjuriy davoye topmadim ushshoq aro,
Mubtalolig‘din rahoye topmadim ushshoq aro,
Ko‘p jafo tortib, vafoye topmadim ushshoq aro,
G‘ussa changidin navoye topmadim ushshoq aro,
To Navoiydek asir-u benavo bo‘ldum sanga.

Baytda M. ustozining fikrlarini davom ettirib va to‘ldiribgina qolmay, baytning ravonligi, musiqiyligi va jarangdorligini ta’minlashga ham harakat qilgan, ya’ni mazmunning o‘zi bilangina kifoyalanmay, shaklning ham mazmunni yuzaga chiqarishdagi, she’riy misralar ta’sirchanligini ta’minlashdagi o‘rnini ko‘zdan qochirmaydi. Shuning u-n ham qofiyali va radifli misralar ijod qilib, taxmis bog‘lanayotgan g‘azal baytini go‘zal va jarangdor bandga aylantiradi. M. muxammaslari ana shunday mahorat mevasi bo‘lgan badiiy mukammalligi b-n ajralib turadi.

Ad.: *Маҳжурий. Ҳижратда ўтган умр. – Андижон, 2006.; Маҳжурий М. Висолинг орзуси. – Т., 2019.*

E.O., I.M., S.O‘.

MAHZUN – (XIX asr, Qo‘qon) shoir va yozuvchi. Uychida qozilik qilgan. M. hayoti va ijodiy faoliyati haqida to‘liq ma’lumot beruvchi manbalar yetarli emas. Po‘lotjon domulla Qayyumovning “Tazkirayi Qayyumiy”sida shoir ijodidan namunalar keltirilgan. M. qalamiga mansub “Qissayi Farhod va Shirin” haqida ilk ma’lumot beruvchi Fitrat “Farhod va Shirin” dostoni to‘g‘risida” nomli maqolasida (“Alanga” jurnali, 1930. № 1-2) M.ning Amir Umarxon saroyida xizmat qilganligini aytadi. “Qissayi Farhod va Shirin” 1907-y. G‘ulomiya matbaasida nashr etilgan. Qissa Umar Boqiy nasriy bayonlari qatorida N. dostonlarining ilk nasriy bayonlari sifatida e’tirof etilib, o‘tgan yillar davomida M.Afzalov, S.Erkinov, N.Mallayev, A.Erkinov tomonidan o‘zbek xalq og‘zaki ijodida shu turkumdagi asarlarga qiyosan batafsil tadqiq etilgan.

Nasr va nazm aralash yaratilgan ushbu qissada Farhodning hunar o‘rganishiga otasining qarshi bo‘lishi, Shirinni izlab yo‘lga chiqishi, yo‘lda Shopurni uchratib, Shirin yurtiga yetib borishi, u yerda mardikorlik qilishi, Shirin e’lon qilgan sut uchun ariq qazishi, Farhod va Shirin uchrashuvlari, so‘ng Shirinning Xusravni izlab yo‘lga chiqishi kabi voqealar yo‘nalishi adabiyotshunoslar e’tirof etganidek, adibning N. “F.Sh.” dostoni b-n birga, Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy dostonlaridan ham ijodiy ta’sirlanganini ko‘rsatadi.

“Qissayi Farhod va Shirin” o‘z davrida g‘ayritabiiy syujet yo‘nalishi va voqealarni ifoda etishdagi sodda uslubiga ko‘ra xalq orasida mashhur bo‘lgan. “Farhod va Shirin” xalq dostonining yaratilishida ham sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatgan.

Ad.: *Маллаев Н. Алишер Навоий ва халқ ижодиёти. – Т., 1974; Эркинов С. Наср ва халқчиллик тенденциялари. XVII асрдан XIX асрнинг II ярмигача, Умар Боқий ва Маҳзун. Ўзбек насри тарихидан. – Т., 1982; Эркинов С. Шарқ адабиётида Фарҳод қиссаси. – Т., 1985.*

O.T.

MAHZUNA (taxallusi; asl ismi-sharifi: Mehribon Mulla Boshmon qizi, taxm. 1811, Qo‘qon) – shoira. Tojik olimi T.Usmonning ma’lumot berishicha, asli Konibodom yoki Isfarada kambag‘al oilada tug‘ilib, keyin otasi Qo‘qonga ko‘chib borgan. Otasi Mulla Boshmon mahalla masjidi imomi bo‘lgan. Ota-onasi qo‘lida savod chiqarib, arab va fors tillarini o‘rgangan. N., Jomiy, Fuzuliy kabi zabardast so‘z san’atkorlari ijodidan ta’sirlanib, 16 yoshidan she’r yoza boshlagan. P.Qayyumov oilada diniy tarbiya olganiga qaramay, u Yassaviyga emas, N.ga ergashganini aytadi. Fazliy b-n mushoirasida bu haqda uning o‘zi shunday deydi:

Bayt ul-hazan ichinda uzlat tutub bu Mahzun,
Fazli ilohi(y)dur bu, yo‘qsa kitob ko‘rmay.

U yashagan Qo‘qonning qatag‘on dahasidagi xushhavo va serhosil Mulla Boshmon mahallasi-

da Gulxaniy, Mushrif, Behjat kabi shoirlar ham istiqomat qilganlar.

Fazliy Namangoniyning “Majmuat-ush shuaro”, Hashmatning “Tazkirat ush-shuaro” tazkiralarida M. hayoti va ijodi haqida ma’lumotlar uchraydi. Fazliy uning oqila va hozirjavob shoira ekanligi haqida xabar berib, jumladan, shunday yozadi: “Fozil bir kishining muborak chehra, baxt yulduzidek pok qizi bor edi. U aql-u idrokda Zebunnisodek yagona bo‘lib, Qo‘qonda mashhur shoiradir. U o‘z nomidek muloyim, mehribon edi va meni imtihon qilib, sinab yurardi. Hurlar rashk qiladigan bu go‘zal uzoqdan, xat orqali men b-n so‘zlashib turardi. Bu oy yuzlining taxallusi M. bo‘lib, balandparvoz xayoli o‘zgacha edi. Xushta’b, odobli, shuningdek, ma’suma, iffatli edi. Men notavon turli o‘y-fikrlar b-n unga qanday g‘azallar yubormayin, ul parichehra mening har baytimga gavhardek pok javoblar qaytarardi”. Shunga asoslanib, P.Qayyumov M.ning Fazliy b-n mushoirasi xat orqali bo‘lganini ta’kidlaydi. Hashmat, Pisandiy, tarixchi Ahmadjon To‘ralar ham M.ning yetuk shoira bo‘lganligini yozib qoldirganlar.

M. o‘ziga nomunosib kishiga turmushga chiqib, baxtini topmagan. Uning o‘z turmushidan noroziligi Fazliy b-n mushoirasidan yaqqol sezilib turadi. Fazliy M.ning o‘zi zaifa bo‘lsa ham, so‘zi erkaklarnikidan mazmundor, deb lutf etadi.

M.ning devon tuzgani haqida ma’lumotlar bo‘lsa-da, uning faqat 3 she’ri bizgacha yetib kelgan: Fazliy b-n mushoirasi, “Oshiq bo‘lmisham” muxammasi va “Sahbo” nomli tojikcha g‘azali.

“Oshiq bo‘lmisham” muxammasida N. ijodining ta’sirini ko‘ramiz:

Orazin ochqoch, quyosh anvorini aylar adam,
Jon g‘izolig‘a berur vahshiy ko‘zi ta’limi ram,
Lablarini oldida qand-u asaldur misli sam,
Zulf-u qadd-u orazidin munfail Bog‘i Eram,
Kishvari husn ichra bir yaktoya oshiq bo‘lmisham.

Ravon uslub, sodda tilda yozilgan, ohorli tashbeh-u timsollarga boy, badiiy jihatdan yetuk bu muxammasda N. va mumtoz o‘zbek adabiyoti an’analarining yangicha sharoitda rivojlantirilgan va boyitilgan.

Ad.: *Жалолов Т. Ўзбек шоиралари. – Т., 1980; Тазкираи Қайюмий. 1-китоб. – Т., 1998.; Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 5-жилд. – Т., 2003; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 2. – Душанбе, 1989.*

E.O.

MAHOFA (ar.) – ayollar tutib yuradigan atrofi o‘ralgan soyabonli kajava; amori. N. ijodida ham shunday mazmunda qo‘llangan. M-n:

Mahofa aro aylabon oni rust,
Qadam qo‘ydilar shah degan sari chust.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Ғиёс уллуғот. Жилд 2. – Душанбе, 1988.; Фарҳанги забони тожики. Жилд 1. – М., 1969.*

Sh.R.

MAHMUD BARLOS (XV asr,) – temuriylar davrida yashagan davlat arbobi, shoir, diplomat. Asli Novandak degan joydan bo‘lib, barlos urug‘iga mansubdir. Sulton Abusaid, Sulton Mas’ud mirzolarning hukmronlik davrida faoliyat ko‘rsatgan.

Beklik rutbasini Sulton Abusaid davrida olgan. Mazkur podshohning Iroqqa qilgan yurishi vaqtida M.B. Kirmon viloyatiga yuborilgan va birmuncha vaqt shu viloyatni boshqargan (1468-1469-yy.). Keyinchalik umrining oxirigacha Hisor hukmdorlari saroyida xizmat qilib, amorat devonida muhr bosgan. M.B. diplomatik faoliyat bilan ham shug‘ullangan. Manbalarda uning elchi yoki muzokaralar olib borish u-n vakil sifatida yuborilgani haqida ma’lumotlar uchraydi.

M.B. harbiy sohada ham iqtidorga ega bo‘lib, bir necha marta o‘z jasorati va salohiyatini namoyon qilgan. Jumladan, Abubakr mirzo Hisorga hujum qilganda Hisor hukmdori Sulton Mahmud mirzo unga qarshilik ko‘rsatmay,

viloyatni tashlab ketgan. M.B. Hisor mudofaasini o‘z qo‘liga olib, dushman hujumini qaytargan.

Sulton Husayn mirzoning Hisorga qilgan yurishi vaqtida ham M.B. bir nechta beklar b-n birga qattiq qarshilik ko‘rsatgan. Xuroson qo‘shini ikki oy qamal qilib, g‘alabaga erisha olmagan va sulh tuzishga qaror qilgan. Muzokaralarni M.B. olib borgan. Sulton Husayn mirzo tomonidan Pir Hoji bakovul vakil qilingan. Ularning kelishuvi b-n tomonlar yarashib, Sulton Mahmud mirzoning qizi Sulton Husayn Mirzoning Haydar mirzo otli o‘g‘liga berilgan va to‘y marosimi o‘tkazilgan (1496-y.).

M.B. badiiy ijod b-n ham shug‘ullangan, sohibdevon shoir bo‘lgan.

N. zamondosh sifatida M.B. ni yaxshi bilgan va unga hurmat b-n qaragan, u M.B.ning ijodidan ham xabardor bo‘lgan.

“M.” tarkibidagi maktublardan birida M.B. ning Sulton Mahmud mirzo nomidan elchi bo‘lib kelgani haqida N. shunday yozadi: “Bu uchurda Sulton Mahmud mirzo qoshidin M.B. kelib, peshkash va sochiq kelturub, qulluq xizmatgorlig‘larin izhor qildi”. Bu so‘zlardan ularning uchrashgan va tanish bo‘lganliklari haqida xulosa qilish mumkin.

M.B.ni “M.N.”ning oltinchi majlisida N. iliq fikrlar bildirgan, xususan, shaxsiyatiga yuksak baho bergan, uning nasl-nasabi ulug‘ bo‘lishi b-n bir qatorda “darveshvash va foniy mashrab va betakalluf kishi” ekanini ta’kidlagan. Tazkirada M.B. ijodidan bir matla’ keltiriladi.

Shuningdek, N. uning noma janrida ham ijod qilganligini aytib o‘tadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис . ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Муншаот. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 2002.*

Q.E.

MAHMUD VA AYOZ HIKOYATI – “L.T.” dostoniga kiritilgan hikoyat.

Yo‘q edi ul dam Ayoz-u shoh edi,
Ham o‘zi bedil ham ul dilxoh edi.

Kimga vahdat qilsa mundoq turktoz,
Farq bo‘lmas onda sultondin Ayoz.

Olami tavhiddin topqon xabar,
Menlik-u senlikdin ul topmas asar.

Mazkur hikoyat g‘aznaviylar sulolasining mashhur hukmdorlaridan Mahmud ibn Sabuktagin G‘aznaviy hamda uning xos mahrami va quli Ayoz haqida. Bir kecha haqiqiy oshiq Mahmud o‘rnidan turib, Ayozning nima b-n mashg‘ul ekanligini bilmoqchi bo‘ladi. Garchi Ayoz uyg‘oq bo‘lsa ham ko‘zlarini yumib, hiyla ila o‘zini uxlaganga solib, taxt poyiga yostiq qo‘yib yotar edi. Shoh Mahmud uning boshiga keldi. Husniga bir dam nazar tashlab, o‘zidagi shavq o‘tiga chora topmoqchi bo‘ldi. Lekin bu qarash uning shavqini yanada orttirdi. Ishq Mahmudning holini butunlay o‘zgartirdi. Shoh mahvashning oyoqlariga o‘zini tashlab, shavqqa to‘lgan holda ko‘zlarini Ayozning poyiga surtib, tavof qila boshladi. Ayoz esa uzrxohlik bilan oyog‘ini tortib olmas edi. Zero, ishq qullik va shohlik, oshiqlik va ma’shuqlik tafovutini oradan ko‘targan edi. Mahmud nozaninning uyg‘oq ekanligini bilib, unga shunday dedi: “Sani beparvoligingdan jonim og‘riyapti (kuymoqda). Senga bo‘lgan shunchalar muhtojligimni ko‘rib ham nozingni to‘xtatmaysan. Nega oyog‘ingni yig‘ib, turib o‘tirmading? Bizga mehr ko‘rguzub, biror so‘z demading? “Shunda gulyuzli Ayoz dedi: “Ey sohibnazar shoh! Menda ul dam “menlik”dan asar bormidi? Kim birovdan uzr so‘raydi, axir u dam menda “menlik” batamom g‘oyib bo‘lgan edi. U dam Ayoz yo‘q edi, faqat shoh bor edi. Ham o‘zi oshiq, ham ma’shuq edi. Vahdat kimniki o‘zligini bunday turktoz – g‘orat aylasa, u holda sultondan Ayozning farqi bo‘lmaydi. Tavhid olamidan xabardorlarga “menlik” va “senlik”dan asar ham qolmaydi”.

Mazkur hikoyat dostondagi “Tavhid tariqi adosida munojot” deb nomlangan bobdan keyin keltiriladi. Ma’lumki, solik bosib o‘tadigan vodiylarning beshinchisi tavhiddir. Tavhid nafsning yuqori darajalaridan sanaladi. Butun mavjudot Allohning ismi, fe’li, sifati va zoti sifatida tajalli etadi. Ikkilik ko‘tarilib, faqat U qoladi. Hatto “men”(lik) ham unut bo‘ladi. Tasavvufdagi ma’naviy valodat mana shu maqomda bo‘ladi. Tavhid vodiysidagi Vohid solikning so‘zi shudir:

Bir bo‘l-u, bir ko‘r-u, bir de, bir tila,
Mayl qilma munda ikkilik bila.

Ruh tarbiyasida, Ishq yo‘lchiligida “G‘arqi vahdoniyat”dan hayrat dengiziga cho‘mmagan Muhayyir solik yo‘qdir. Maqomi tavhidda inson o‘z holiga muhayyir. Axir soyirun nos – inson u-n ahd-u paymon aylagan “Alast bazmi”ni eslash va unga qaytish sog‘inchidan ham ortiq hayrat-u hayronlik bormi? Nafs tarbiyasida jiddu jahd aylab, O‘zligini unutgan – nafs-u havoni yenggan vohid solik hayrat maqomiga ko‘tariladi. Dostonning asosiy qahramoni, ya’ni muallif ham Robbul olamin – olamlar Murabbiyidan tavhid maqomiga erishishni istab yolvoradi:

Har kishikim qismi tavhid aylading,
Boisi tajrid-u tafrid aylading.

Kimki o‘zlukdin chiqording oni chust,
Aylading ollingda tavhiddin durust.

Men-u o‘zluk shirkatin mendin itur,
Mahz tavhiding sari, yo Rab, yetur.

Menda, yo Rab, qo‘yma menlikdin nishon,
O‘zlugungda mahv qil domonkashon.

Demak, tavhid sababni oradan ko‘tarish, har narsa Allohdan deb bilish va eng asosiysi, bashariy o‘zligidan tom ozod bo‘lishdir. Mana shunday ma’nan qayta tug‘ilish bosqichini ko‘rsatishda dostondagi “Mahmud va Ayoz” hikoyati alohida e’tiborga molik.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

Z.R.

MAHMUD IBN DOVUD – XVI asr Nasx va nasta’liq xatida g‘oyatda yaxshi yozgan. Misrda turkiy tildagi asarlarni ko‘chirgan (o‘sha vaqtda Misr turk sultonligiga qarashli bo‘lgan) xattotlardan biri. N.ning “M.N.”, “M.Q.”, “A.” va “Xam.M.”dan iborat to‘plamini 967–1559/60-yy.da Misrda kitobat qilgan.

Ad.: *Муҳаммад Шариф Садри Зиё. Тазкират ал-хаттотин. ШҚМ-1, № 130; Муродов А. Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан. – Т., 1971; Собрание восточных рукописей академии наук Узбекистан. VII. – Т., 1964.*

Muh.A.

MAHMUD IBN IS’HOQ SHAHOBIY – “Zarrin qalam”ning otasi, Hirot ulug‘laridan edi. Ubaydulloxon Sulton Mahmud o‘g‘li uni ustozi Mirali Hiraviy b-n birga Buxoroga olib keladi. Buxoro xattotlik maktabining asoschilaridan. U xatni shu qadar nozik va chiroyli bitgani u-n unga Ubaydulloxon tomonidan “Anbarin zarrinqalam” unvoni beriladi. O‘xshatma qilib ko‘chirish mahoratiga ega bo‘lgan, M.I.Sh. nafis va go‘zal katabalar, qimmatbaho riq’alar, tengsiz badiiy qit’alari b-n tarix sahifasida iz qoldirdi. Bu xattot N.ning “M.N.” asarini hijriy 996 (1587)-yy.da Buxoroda kitobat qilgan. Kotib qo‘lyozma so‘ngida “Mahmud anbarin zarrinqalam” deb imzo qo‘ygan.

Ad.: *Мирзо Муҳаммадшариф. Садр-Зиё. Тазкираи хаттотон. Ўз. ШҚМ. Қўлёзма. 1304. 2193; Муродов А. Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан. – Т., 1971; МунировҚ., Носиров А. Алишер Навоий қўлёзма асарлари каталоги. – Т., 1970; Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. – Т., 1991; Т: ШҚМ, инв. 429, 85 в.*

Muh.A.

MAHMUD MUZAHHIB (Shayxzoda Mahmud, t.y.n., Hirot − v. 1565/70, Buxoro) − naqqosh, musavvir. M.M. XV asrning II yarmida Behzod rahbarlik qilayotgan “Nigoriston” (Behzod tasviriy san’at maktabi)da bevosita Behzodning o‘zidan ta’lim oladi va Hirotda mohir musavvir bo‘lib taniladi. Mirak naqqosh huzurida ham tahsil ko‘rgan. Husayn Boyqaro saroyi naqqoshi bo‘lgan. 1507-y. Hirot Shayboniyxon tomonidan zabt etilgach, Buxoroga keladi.

Hirotda yaratgan asarlari bizgacha yetib kelmagan. M.M Buxoroda Behzod nafis tasviriy san’at uslubini davom ettiradi, XVI asrning 30−40-yy.da chizgan suratlaridan 30 ga yaqini topilgan. Buxoro miniatyura maktabining zabardast namoyandalaridan bo‘lgan mohir musavvirning Nizomiyning “Maxzan ul-asror” dostoniga ishlagan miniatyurasi (1545) Parij milliy kutubxonasi, Sa’diyning “Bo‘ston”iga chizgan suratlari (1549) Lissabonda (K. Gulbenkyan kolleksiyasida) saqlanadi. Jomiyning “Tuhfat ul-ahror” asariga ham u naqsh-u rasmlar bilan zeb bergan. Uning qalamiga mansub miniatyuralar o‘ziga xos jihatlarga ega bo‘lib, betakror va yorqin ranglar bilan jilo topgan. Ijodining yana bir diqqatga sazovor tomoni mahalliy miniatyura an’analarini rivojlantirgan. Personajlari tipik xususiyatga ega bo‘lib, favqulodda bir mahorat b-n tasvirlangan. Ranglar va shakllar tovlanishi tazodi nozik va jozib ifoda topgan. Bu, xususan, “Sulton Sanjar va to‘quvchi kampir” suratida yorqin namoyon bo‘ladi. Ijodiy faoliyatining ikkinchi davrida portret chizish bilan mashg‘ul bo‘lib, qator portretlar yaratganki, ular musavvirning oliy san’atidan darak beradi.

M.M. chizgan N.ning yagona surati mashhur bo‘lib, Mashhaddagi “Ostoni Quds” kutubxonasida saqlanadi. Suratda N. hassaga suyangan holda tik turibdi. Ustida uzun qabo. Boshida salla. Qaddi biroz bukchaygan. Qarilik chog‘i ekanligi sezilib turibdi. Suratning yuqorisida “Surati Amiri Kabir Mir Alisher”, pastida esa “Amali Mahmud Muzahhib” degan yozuv qo‘yilgan. Mazkur surat 1931-y. Londonda tashkil etilgan Eron san’ati ko‘rgazmasida namoyish qilingan edi. 1500-y. chizilgan bu surat keyinchalik mamlakatimizda ishlangan N.ning barcha rasmlari u-n asos bo‘ldi. 1940-y. chop etilgan “Navoiy davri portretlari” albomida e’lon qilingan.

N.ning suratini M.M. Behzod chizgan tasvirdan ko‘chirib olganligi ehtimoldan xoli emas.

Ad.: *Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 2. – Душанбе, 1989; Норқулов Н. Темурийлар даври маданияти тарихидан лавҳалар. – Хоразм, 1996; Абдуқодиров А. Амир Алишер Навоий. – Хўжанд, 2013; Хондамир, Равзат ус-сафо, 7-жилд. Тошбосма; Усмонов О. Камолиддин Беҳзод ва унинг наққошлик мактаби. – Т., 1977; ЎзМЭ. 5-жилд. – Т., 2003.*

E.O.

MAHRI MUAJJAL – mahr turi. Mahr nikohga olinayotgan ayol u-n kuyov tomonidan ajratiladigan mol-mulk. Bu mulk faqat o‘sha ayolga tegishli hisoblanadi, undan boshqalari, hatto eri va bolalari ham ayolning roziligisiz foydalana olmaydi.

M.M. iborasi tarkibidagi ikkinchi so‘z muajjal shaklida yozilsa, unda o‘z vaqtida beriladigan mahrni anglatadi. Agar ikkinchi so‘z muajjal tarzida yozilsa, keyinga qoldirilgan, keyinroq to‘lash sharti b-n berilgan mahrni bildiradi.

M.M. iborasini N. ko‘chma ma’noda qo‘llaydi va o‘zining olam va odam haqidagi teran falsafiy fikrlarini ifodalashda foydalanadi. “H.A.” dostonining o‘n to‘rtinchi maqolatida N. dunyoni yasangan, fusunkor bir ayol qiyofasida tasvirlaydi. Makkor charx mashshotalar singari unga oro bergan:

Aylabon ul sho‘xni orosta,
Subh dami chun guli navxosta.

G‘oza urub orazig‘a gul bila,
Zulf o‘rub egniga sunbul bila.

Vusma chekib, sabza bila qoshig‘a,
Me’jar etib, shabnam ila boshig‘a.

Bundan maqsad esa xalqni dunyoga giriftor qilish, ko‘ngil qo‘ydirish edi. Ushbu hiylakorlik ish beradi. Odamlarning yuragidan dunyo ishqi o‘rin oladi:

Muncha fusunkim, qilib izhor anga,
Bo‘lmoq uchun xalq giriftor anga.

To ani har kimki ko‘rub zor o‘lub,
Ishq kamandig‘a giriftor o‘lub.

Chun ko‘rub ul zolni bir Rustame,
Bo‘ldi havosida asiri g‘ame.

Charx esa o‘rtada dallollik qilib, ularni qovushtiradi va bu aqd (nikoh)ni mahr b-n mustahkamlaydi. Bu nikohning o‘z vaqtida beriladigan mahri jon, keyinga qoldirilgani mahri imondir:

Zohir etib o‘rtada dallolaliq,
Aytma dallolaki, muhtolaliq.

Ul qadar afsun nuhuft aylabon,
Kim ul ikki toqni juft aylabon.

Mahkam etar chog‘da alar aqdini,
Mahr etibon javhari jon naqdini,

Mahri maajjal bu dam ar jon bo‘lub,
Tongla muajjal anga imon bo‘lub.

Lekin bu nikohning oxiri voy bo‘lib chiqadi. Oshig‘ini butunlay bo‘ysundirib olgan makkora o‘zining barcha talablarini bajarishga majbur etadi, oxir-oqibatda dini imonidan ayiradi:

Mahri maajjal tilabon jon olib,
So‘ngra muajjal tilab imon olib.

Jon bila imonni chu toroj etib,
Dahr evidin oni ixroj etib.

Shu tariqa N. dunyoga shefta bo‘lish, boylikka, ho-yu havaslarga berilish insonni ne ko‘yga solishini ko‘rsatadi va insonni ogoh bo‘lishga, dunyoga hirs qo‘yish uni zabun qilmasdan burun uning o‘zini zabun etishga chaqiradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

Q.E.

“MEZON UL-AVZON” − N.ning aruz haqida turkiy tildagi ilk mukammal qo‘llanma sifatida 1492-y.dan keyin yozgan asari. Hozirgacha bizga turkiy tilda aruzga bag‘ishlab yozilgan 3 asar ma’lum: Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziyning “Funun ul-balog‘a” (“Yetuklik ilmlari”), N.ning “M.A.” (“Vaznlar o‘lchovi”) va Zahiriddin Muhammad Boburning “Muxtasar” (“Risolayi aruz”).

1436–1437-yy.da yaratilgan “Funun ul-balog‘a” qo‘lyozmasining fotonusxasi 1993-y.da taniqli tilshunos olim, f.f. d-ri E.Umarov tomonidan O‘zbekistonga olib kelindi. Atoqli n.shunos olim, f.f. d-ri A.Hayitmetov uni joriy alifboda nashrga tayyorlab, 1996-y.da nashr ettirdi. Lekin adadi oz bo‘lgani u-n asar “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalining 2002-y. 1-6 va 2003-y. 1-3-sonlarida – jami 9 ta sonida e’lon qilindi. Bu asardan N. ham bexabar bo‘lgan. Shuning u-n ham o‘zbek adabiyotining qayerida bo‘shliq ko‘rsa, uni to‘ldirishga intilgan adib va olim o‘z asarini aruz haqida turkiy tildagi ilk mukammal qo‘llanma sifatida yozgan.

Risolada aruz, uning bahrlari, vaznlari, zihoflari, ruknlari, asllari va taqte’lari haqida keng ma’lumot berilishi b-n birga turkiy she’riyatga oid yangi vazn va janrlar b-n to‘ldiriladi (tuyuq, qo‘shuq, chinga kabilar shular jumlasidandir). U aruz doiralarini ham mukammallashtiradi: “Doirayi mujtamia” va “Doirayi muxtalita”ni yaratadi. Arab she’riyatiga xos bo‘lib, fors-tojik tadqiqotchilarining keyingi asarlariga kirmagan tavil, madid va basit bahrlari asosidagi “Doirayi mushtabiha”ni kiritadi. Xondamir ta’biri b-n

aytganda, risolada N.ning “she’riyatning nozik jihatlari borasidagi katta mahorati va tajribasi” yorqin namoyon bo‘lgan.

“M.A.” zabardast adabiyotshunos olim I.Sulton tomonidan o‘rganilib, uning tanqidiy matni yaratilgan. N.ning XV va XX jildlik asarlari to‘plamiga shu matn asos qilib olingan.

“M.A.” Turkiya va Ozarbayjonda ham chuqur o‘rganilgan. Taniqli turk olimi, prof. K.Eraslan uni jiddiy tadqiq etib, izohlar, turli qo‘lyozmalardagi tafovutlarini ko‘rsatgan holda 1993-y. da Anqarada nashr ettirdi. 2006-y.da xuddi shu ishni Bokuda f.f. d-ri T.Quliyev amalga oshirdi.

“M.A.” N.ning “To‘la asarlar to‘plami” u-n yangidan nashrga tayyorlanib, e’lon qilingan matn E.Ochilov tomonidan I.Sulton nashr ettirgan arab yozuvidagi tanqidiy matnga solishtirib chiqilgan va yo‘l qo‘yilgan ba’zi xatolar topib tuzatilgan, shuningdek, keyingi nashrlarda tushib qolgan ayrim so‘zlar va jumlalar tiklangan. Matndagi shubha tug‘dirgan o‘rinlarda K.Eraslan va T.Quliyev nashrlariga murojaat qilingan. Matnni qayta nashrga tayyorlash jarayonida vaznlar, ruknlar va zihoflarning qanchalik to‘g‘ri berilganligiga ishonch hosil qilish hamda o‘tib ketgan ba’zi xato va soxtaliklarni bartaraf etish u-n, shuningdek, Shams Qays Roziy, Atoulloh Husayniy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdurauf Fitrat, Bahrom Sirus, Subhonjon Davronov, Toshpo‘lat Zehniy, Alibek Rustamov, Anvar Hojiahmedov, Shoislom Shomuhammedov, Mirzaahmad Olimovlarning aruzga oid asarlaridan ham istifoda etilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Асарлари. 15 жилдлик, 14-жилд. – Т., 1967; Alĭ-şĭr Nevăĭ. Mĭzănu’l-evzăn. Hazirlayan Prof.Dr. Kemal Eraslan. Ankara, 1993.; Əlişir Nəvai. Mizanűl ővzan. Ciğataycadan çevirən, qeydlər və şərhlərin műəllifi: Tərlan Quliyev. Baki-Nurlan, 2006; Сирожиддинов Ш., Юсупова Д., Давлатов О. Навоийшунослик. – Т., 2018; Алишер Навоий: Қомусий луғат. 1–2-жилдлар. – Т., 2016.*

E.O.

“MENI MEN ISTAGAN O‘Z SUHBATIGA...”

N.ning “B.V.” devoniga kiritilgan 7 baytli g‘azali:

Meni men istagan o‘z suhbatig‘a
arjumand etmas,
Meni istar kishining suhbatin
ko‘nglum pisand etmas.
Ne bahra topqamen andinki, mendin
istagay bahra,
Chu ulkim, bahraye ondin tilarmen,
bahramand etmas.

Netay hur-u pari bazminki, qatlim yo
hayotimg‘a,
Ayon ul zahr chashm aylab nihon,
bu no‘shxand etmas.

Kerakmas oy bilan kun shaklikim,
husn-u malohatdin,
Ichim ul chok-chok etmas, tanim bu
band– band etmas.

Kerak o‘z chobuki qotilvashi
majnunshiorimkim,
Buzug‘ ko‘nglumdin o‘zga yerda
javloni samand etmas.
Ko‘ngul uz charxi zolidin, firibin
yemakim, oxir
Ajal sarrishtasidin o‘zga bo‘ynungg‘a
kamand etmas.

Ul oy o‘tlug‘ yuzin ochsa, Navoiy
tegmasin deb ko‘z,
Muhabbat tuxmidin o‘zga ul o‘t uzra
sipand etmas.

Mazkur g‘azal ikki “Men” (“Meni men istagan”) b-n boshlanadi. Sharqda, ayniqsa, tasavvuf ta’limotida “Men”ga diqqatni tortish yoki urg‘u berish uncha maqbul ko‘rilmagan. Chunki Qur’oni Karimga ko‘ra, shayton “Men Odamdan yaxshiroqman”, Fir’avn esa o‘z qavmiga “Men

sizlarning eng ustun parvardigoringizdirman”, – deganida, aynan “Men”lik da’vosiga berilgan. Mansur Xallojning ham “Anal– Haq”ida “Men” birinchi o‘rinda turadi va bu uning qatliga sabab bo‘lganligi ma’lum. Fir’avnning “Men”i b-n oshiq mutasavvifning “Men”i bir-biridan butunlay farq qiladi. Bu farq tadqiqotchilar tomonidan shunday sharhlangan: “Fir’avn faqat o‘zini ko‘rib Menini yitirgan, Mansur yolg‘iz Menni ko‘rib o‘zini unutgan, ya’ni Misr xoqonining “Men”i kofirlikning, Xallojniki Alloh rahmatining ifodasi edi”. Shu ma’noda inson “Men” deyishga to‘la haqlidir. N. nafsoniy shaxsini yenggan oqil, orif, donishmand suhbatdoshni orzu qilgan.

Meni men istagan o‘z suhbatig‘a
arjumand etmas,
Meni istar kishining suhbatin
ko‘nglum pisand etmas.

Albatta, dono nodon suhbatidan qochganidek, johilning gap-so‘zlarini oqil nazarga ilmaydi va bu tabiiy hol. Shu ma’noda shoir:

Ne bahra topqamen andinki, mendin
istagay bahra,
Chu ulkim, bahraye andin tilarmen,
bahramand etmas, –

deganda to‘la haqdir.

Netay hur-u pari bazminki, qatlim yo
hayotimg‘a,
Ayon ul zahr chashm aylab nihon
bu no‘shxand etmas.

Bu so‘zlarni o‘qigan she’rxon “suhbat” b-n “bazm” o‘rtasida bir yaqinlik topadi. Va o‘z-o‘zidan, “Oldingi baytlardagi fikr ham oshiq va ma’shuqa munosabatlariga tegishlidir”, degan xulosaga keladi. Umuman olganda, bu xulosaga e’tiroz bildirmaslik kerak. Chunki sevganni sevmaslik, sevmaganga sodiq qolishga urinish muhabbat dunyosidagi g‘aroyib hodisalardandir. Qolaversa, oshiqning “hur-u pari bazmi”dan o‘z ma’shuqasining suhbat majlisini ustun qo‘yayotganligi shundoq sezilib turibdi. Lekin g‘azalning dastlabki baytlari oshiqdan ko‘ra orif va malomatmashrab kishilarni ortiqroq zavqlantiradi.

Darhaqiqat, til oshnoligi oson, dil oshnoligi qiyin. Moddiy dunyo talabi va manfaatlari atrofida odamlar tez birlashishadi. Sharq mutafakkirlari ahli dil – ma’no erlarining hayotga qarashi, dunyoni idrok etish tarzi ahli suvratga nisbatan butkul o‘zgacha va og‘irroq kechishini keng izohlab berishgan. Ayrim ulug‘ allomalar bu masalaga shu qadar chuqur nazar tashlashganki, goho fikr va hukmlarida keskinlik zohir bo‘lishidan ham cho‘chishmagan. M-n, komil inson tabiati va haqiqatlarini tadqiq qilgan Aziziddin Nasafiy bir o‘rinda yozadi: “qat’iy o‘laroq shuni bilgilki, insonlarning ko‘pchiligida insonlik qiyofasi bo‘lgan bilan insoniylik ma’nosi yo‘qdir... Bunga mutlaqo ajablanma. Har bir shaharda ham jisman, ham ma’nan insonlik sharafiga loyiq sanoqli kishilar bordir. Qolganlarida suvrat bo‘lgan bilan ular ma’nidan mahrumdirlar”.

Ushbu g‘azalida yor sevgisi ilohiy ishq b-n uyg‘unlikda talqin etilgan bo‘lib, quyidagi inkor so‘zlari ham shu maqsadga xizmat qiladi:

Kerakmas oy bilan kun shaklikim,
husn-u malohatdin,
Ichim ul chok-chok etmas, tanim bu
band-band etmas.

Keyingi bayt ma’shuqa vasfiga bag‘ishlangan: u “chobuki qotilvash”gina emas, “majnunshior” hamdir. Unga sodiq oshiq bo‘lish u-n junun yo‘lini tanlash va junun mayidan mast bo‘lmoq lozim. Zero, u “buzug‘ ko‘ngul”dan o‘zga hech joyda jamol ko‘rsatmaganidek, “javloni samand” ham etmaydi:

Kerak o‘z chobuki qotilvash
majnunshiorimkim,
Buzug‘ ko‘nglumdin o‘zga yerda
javloni samand etmas.

“Buzug‘ ko‘ngul”ga hokimi mutlaq ma’shuqa bo‘lgach, boshqa hech narsa undan o‘rin topmaydi. Va u makkor dahr “Charx zoli”din firib yemaslik u-n mosivodan xalos bo‘lib, tark holini kamolga yetkazish lozim. Ana shunda inson bemahal ajal domiga tushishdan o‘zini qutqazishi mumkin:

Ko‘ngul uz charxi zolidin, firibin
yemakim, oxir
Ajal sarrishtasidin o‘zga bo‘ynungg‘a
kamand etmas.

Maqta’da lirik qahramonning ko‘ngli tilagan musohibi oy yuzli ma’shuqa ekanligi, unga o‘zgalardan bir yomonlik yetmasligi u-n uning ichdan qayg‘urganligi ravshanlashadi:

Ul oy o‘tlug‘ yuzin ochsa, Navoiy,
tegmasin deb ko‘z,
Muhabbat tuxmidin o‘zga ul o‘t uzra
sipand etmas.

“Ko‘z tegmasin” deya isiriq tutatish xalq orasidagi eski udum. Yorning yuzida bir olov porlagani bois isiriq o‘rniga muhabbat tuxmi ishlatiladi. Qadimiy kitoblarda izohlanishicha, muhabbat “hibba” so‘zidan olingan bo‘lib, lug‘aviy ma’nosi ustiga tuproq tortilgan urug‘ demakdir. Hayotning asli va asosi ana shu urug‘da yashiringanidek, insonning diniy, ma’naviy, ruhiy, axloqiy hayotining ildizi va tub mohiyati ham muhabbatdadir. Xuddi shu sababdan N. “Muhabbat tuxmidin o‘zga ul o‘t uzra sipand etmas” degan.

Ad.: *Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик, 3-жилд. – Т., 2011.*

I.H.

ME’ROJ (Mi’roj) (ar.) – 1. Shoti, narvon; 2. Yuqoriga (ko‘kka) ko‘tarilish; 3. Muhammad (s.a.v.)ning tunda Makkadan Quddusga borishi (isro) va Quddusdagi Aqso masjididan yuqori olamga Allohning huzuriga ko‘tarilishi. Islom tarixida bu voqeani yoritgan oyat va hadislar, maxsus manbalar hamda “Me’rojnoma”lar ko‘p uchraydi. M.ning qachon, qayerda va qanday holatda sodir bo‘lganligi haqida din ulamolari turli fikrlar bildirganlar. Aksar ulamolar M. voqeasi payg‘ambarlikning o‘n ikkinchi yili, rabbi’ul avval oyida yo hijratdan bir yil-u besh oy oldin shavvol oyida yoki rajab oyining oxirlarida, ammasi Ummu Honiyning uyida turganida sodir bo‘lgan deydilar. N. ham bunga ishora qilgan:

Tun o‘ylaki, mehri osmoni,
Olam elidin bo‘lib nihoni.

Bir xobgahi nihoni ichra,
Manzilgahi Ummahoni ichra.

Bor ishdin etib o‘zini ma’zul,
Mahbub xayoli birla mashg‘ul.

M. faqat hazrat Payg‘ambarimiz (s.a.v.)ga xos buyuk bir mo‘jiza bo‘lgani u-n o‘z davrida ba’zi sahobalar ham aqliga sig‘dirolmasdan, dindan qaytib ketgan. Lekin islom aqidasida har bir mo‘min – musulmon M.ni haq deb bilishi va ishonishi kerak.

Hadis va rivoyatlarda aytilishicha, Muhammad (s.a.v.) farishta Jabroil (a.s.) boshchiligida Buroq degan markabga minib, tunda yuqori olamga ko‘tariladi. Ko‘p yillik masofani bosib, osmonlardan o‘tadi. U yerda o‘tgan payg‘ambarlarning ruhi b-n uchrashadi, do‘zax va jannatlarni ko‘radi. Besh vaqt namoz shu tunda farz bo‘ladi. Rafrafga minib, Allohning huzurida ilohiy muloqotga musharraf bo‘ladi. Aytishlaricha, M. voqeasi shu qadar tez fursatda sodir bo‘lganki, hazrat Payg‘ambarimiz (s.a.v.) qaytib kelganida hali yotog‘i sovimagan ekan. N. ham “H.A.” dostonida ayni holatga diqqat qaratadi:

Borg‘oni-yu kelgani bir on o‘lub,
Aql bu mansubada hayron o‘lub.

Qayda xavoriq bila mu'jiz durur,
Aql aning idrokida ojiz durur.

Musulmonlardan yetishib chiqqan juda ko‘p shoir va adiblar, shular qatori N. ham M. voqealarini adabiy-badiiy uslubda ta'rif va tavsif etgan. U har bir na't g‘azalda M. b-n bog‘liq u yoki bu hodisaga ishora qiladi. Alohida g‘azallarda yoki dostonlarning M.ga oid fasllarida esa bu haqda batafsil to‘xtaladi. Jumladan "H.A." va "L.T." dostonining alohida boblarida M. voqeasi juda izchil va keng qamrovli tasvirlangan. N.ning mahorati shundaki, har gal M. voqeasiga to‘xtalsa, uni boshqa bir tarafdan, takrorlarga yo‘l qo‘ymasdan yuksak badiiy bo‘yoqlarda bayon qiladi. M. voqeasi tunda samolar orqali bo‘lgani u-n ham N. quyosh, oy, yulduz va burjlar kabi samoviy jismlarga qayta-qayta murojaat etadi. O‘rni-o‘rni b-n falaklar, sayyoralar jonlantiriladi, Alloh habibini kutib olish u-n peshvoz chiqadi. N. bunday o‘rinlarda tashbeh, talmeh, intoq va mubolag‘a kabi san'atlarni mahorat b-n qo‘llaydi. M-n, "S.I." dostonida Rasulullo (s.a.v.)ning Jabroil (s.a.) farishta va Buroq markabi orqali birinchi va beshinchi falaklarda joylashgan Oy, Atorud, Zuhra, Quyosh va Bahrom manzillariga kelishi va navbatdagi falaklardan ham oshib o‘tishini juda jonli gavdalantiradi:

Chu oltinchig‘a yetkurub rahbari,
O‘qub xutbayi davlatin Mushtariy.

Duosig‘a minbarda chun qo‘l ochib,
Boshig‘a falak naqdi anjum sochib.

Yetinchiga chun obir aylab samand,
Saodatdin o‘lub Zuhal bahramand.

Bo‘lub daf' aning borcha nahsiyoti,
Qavli bo‘lub aning saodat oti.

Chu aylab sekizinchi sori murur,
Savobit topib maqdamidin surur.

Hazrat Payg‘ambar (s.a.v.)ning tashrifi esa samolardagi farishtalarga, hatto jonsiz jismlarga ham sharaf bag‘ishlaydi.

Yuzungdin anjum, anjumdin quyosh
nur iktisob aylab,
Aningdekkim, quyoshdin oy-u oydin
qiyrgun g‘abro.

M.dagi ulug‘ voqealardan biri, hazrat Payg‘ambar (s.a.v.) Allohdan ummatlarining gunohini tilaydi, ummatiga rahm-u shafqat qilishini istaydi. Istagining qabul bo‘lganidan xursand bo‘ladi. N. bu hodisani shunday ifodalaydi:

Haq tilidin ummatin istab tamom,
Haqdin o‘lub borcha murodig‘a kom.

Osiy ummatning gunohin istabon,
Borcha ahvoli tabohin istabon.

Har ne istab Hayyi mutlaqdin topib,
Haq tilab, Haqdin tilab, Haqdin topib.

M.da Muhammad (s.a.v.)ning olti jihatdan va o‘zlik qaydidan xalos bo‘lib, nur ichida "lo makon"ga, "borgohi qurb"ga qarab yo‘l olish jarayonini N. juda ta'sirli bayon qiladi. "Yetmish ming hijob"dan o‘tgandan keyin boshqa biror hijob qolmaydi. Habib u yerda mahbubga aylanadi va "borgohi qurb"da faqat "jonon"ning o‘zinigina mushohada etadi. Eng muhimi, Uning visolidan bahramand bo‘lib, ehtirom b-n undan to‘qson ming kalom eshitadi. Ulug‘ shoir "L.T." asarida bu ilohiy muloqotni yuksak hayajon va muhabbat b-n qalamga oladi:

G‘ayr osorig‘a imkon qolmayin,
Borib o‘z ham g‘ayri jonon qolmayin

Ham ko‘rub jonon jamolin ko‘z bila,
Vaslidin ham bahra topib so‘z bila.

Aylabon idrok to‘qson ming kalom,
Lek asnosida yuz ming ehtirom.

Hosil aylab ulcha imkoni murod.
Qaytib ul me'rojdin masrur-u shod.

Vaslidin masrur o'lub ul borgoh,
Buyrug'idin muntazam bu korgoh.

Borg'onida bor edi durri shigarf,
Lek yong'onda kelib daryoyi jarf.

Tarfatul'ayn ichra anglab bilgani,
Turfakim bir onda borib kelgani.

Ko'rib o'tganimizdek, N.ning M.ga bag'ishlangan she'rlari o'ziga xos uslub va tasvirlarga ega. Ularni chuqurroq anglash va tushunish u-n bu voqeaning tarixidan xabardor bo'lish va shoirning shu yo'nalishdagi ma'no, g'oya va timsollar olamini to'g'ri idrok etish kerak.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик, 2-жилд. – Т., 1985; Ўзбек адабиётида меърожномалар. – Т., 1995; Метин Оқар. Турк адабиётида манзум меърожномалар. – Анқара, 1987; Б. Ражабова. Бадиий тасвирдаги муштараклик ва ўзига хослик. "Тил ва адабиёт" журнали. 3, 2022.*

S.R.

MEHMON – musofir ma'nosidagi forsiy so'z. M.ga musofir bo'lgani bois Sharq madaniyatida, Islom aqidasida ulug' hurmat b-n qarashgan. Va unga muomala-munosabat haqida qonun-qoidalar ham belgilangan:

Ey kim bermak taom tuttung o'zga,
Mehmon uzrida qo'y ilikni ko'zga,
Boq ashkina ichra bu ajoyib so'zga,
Sindurmog'in o'zga bil, yemakni o'zga.

So'fiylar u-n M.ga munosib hadya jondir. Agar mehmon yor bo'lsa, N.ning sovg'asi ham, shubhasiz, jondir:

Yor mehmonim bo'lur, men oshiq-u muflis netay,
Gar hayotim naqdidur, qilmaq kerak nochor harj.

N. lirikasi tahlilida shuni ta'kidlash joizki, yorni kutib olishda loyiq maskan ko'z va ko'ngildir. Bunday ifodalar devonda ko'plab uchraydi:

Ishq o'ti birla ko'ngul su birla ko'zni qildi pok,
Pok manzillarda mehmon qilg'ali ul pokni.

Yoki:

Jong'a ko'ksum chokidin jononni mehmon ayladim,
Gavhare toptim, oni qo'ynumda pinhon ayladim.

Ba'zan yorning xayoli M. bo'ladi:

To xayoling gah ko'ngul, gah ko'z aro mehmon erur,
Ko'z bila ko'nglum arosinda hasaddin qon erur.

N. she'riyatida yorning o'zi emas, ko'proq uning itlari M. bo'ladi:

Itlaring bo'lmish Navoiy ko'ngli uchun mehmon,
Bu kecha ul ko'y aro, ko'rkim, ajab g'avg'osi bor.

Yoxud:

So'ngaklarni tanimdin bir-bir ayirdi g'ami hajring,
Mahaldur itlaringni aylasam kulbam aro mehmon.

Mumtoz adabiyotda M. bu dunyodagi barcha odamlardir. Chunki ular imtihon u-n vaqtincha foniy – besh kunlik dunyoni maskan qilishgan:

Uy bino aylab ajabdur elni mehmon aylamak,
Ulki bu uy ichra besh kun mehmone besh emas.

Ammo bu dunyoda qayta M. bo'lish imkoni yo'qligini xotirda saqlamoq lozim. N. istagan M. dagi kayfiyat-u istak shunday:

Necha kun olamda chun mehmonsen,
ichkil bodakim,
Mezbon qolmas bu foniy dayr aro,
mehmon dog'i.

“N.M.” tazkirasida: “So‘fiy munda mehmondir. Mehmon taqozosi mezbong‘a jafodur. Mehmonki, adabliq bo‘lg‘ay, muntazir bo‘lg‘ay, yo‘qki mutaqoziy”, - degan Ma’ruf Karxiy fikri ham M.ning tavsifida keltiriladi. Insonni sharif aylagan iroda, ishq, ilm sinaladigan eng mashaqqatli manzili, eng qiyin davri – mana shu foniy dunyodir. Zero, Yaratganga ibodat, ma’rifat, muhabbat – solih amallar o‘tar dunyodadir. Agar u shunchalar “umri aziz” bo‘lmaganda: “Koshkiydi, yana bir karra (yashashning” iloji bo‘lsa-yu... (Baqara: 2/167)”, – deya afsus, nadomat b-n yo‘qotilgan imkoniyat qayta berilishi orzu qilinmasdi. N. Odam Ato avlodlarini bu dunyoga M. deb bilib, ularga nasihatlar qiladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик. 10 жилд. – Т., 2011.*

Z.R.

MEHNA – Xurosondagi joy nomi. Bu nom eski manbalarda Meyhana shaklida ham uchraydi. M. Xovaron dashtida Saraxs yaqinida joylashgan qadimiy aholi manzillaridan biri bo‘lib, hozirgi paytda u yerlar Turkmaniston tarkibiga kiradi va Meyana deb ataladi. M. qadimdan mavjud bo‘lgan bo‘lsa-da, uning mashhur bo‘lishi XI asrdan boshlanadi. Buning sababi bu yerda tasavvufning buyuk vakillaridan biri Shayx Abu Said ibn Abulxayrning tug‘ilgani va yashaganidir. Bolaligi M.da o‘tgan shayx Abu Said keyinchalik Marvga boradi va 10 yil davomida diniy ilmlardan saboq oladi. So‘ngra o‘z piri shayx Luqmon Saraxsiyning ruxsati b-n M.ga qaytadi va bu yerda o‘z tasavvuf maktabiga asos soladi hamda ulug‘ avliyo sifatida e’tirof etiladi. Ana shu vaqtdan e’tiboran M. ham musulmon olamida mashhur bo‘ladi. Shayx Abu Said 1049-y.da vafot etgandan so‘ng M. uning qabri joylashgan yer sifatida ziyoratgohga aylanadi.

M.ning asosiy diqqatga sazovor obidasi Shayx Abu Sa’id maqbarasidir. Bu kub shaklidagi kvadrat bino bo‘lib, har bir tomonining uzunligi 10,5 m.ni tashkil etadi. Maqbara peshtoqi ko‘k, moviy, oq koshinlar b-n bezatilgan va unda Qur’on oyatlari bitilgan. Bino o‘rta asrlar me’morchiligining durdonalaridan biri hisoblanadi.

N. asarlarida M. tilga olingan. “M.N.”ning to‘rtinchi majlisida u Xoja Abu Said haqida ma’lumot berar ekan, uning M.dan ekanini ta’kidlaydi: “Mehnadindur. Hazrati sultoni tariqat Shayx Abu Said Abulxayr avlodidindur”. Tazkirada M. shayxzodalari jumlasidan bo‘lgan Xoja Muayyad Devona, Xoja Muayyad Mehna, Xoja Abu Is’hoq kabi shoirlar haqida ham to‘xtalib o‘tilgan. Xoja Abu Is’hoqning marsiyasidan bir bayt misol sifatida keltirar ekan, N. marsiyaning M. da bitilganini aytib o‘tadi. Xoja Abu Nasr zikrida M. shayxzodalarining “nohamvor maoshi ko‘p”ligi haqida yozadi va misol keltiradi. “N.M.” tazkirasida Shayx Abu Said Abulxayr zikrida uning M.dan ekanligi qayd qilingan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Акимушкин О.Ф. Абу Саид Майхани. Ислам: энциклопедический словарь. – М., 1991.*

Q.E.

MEHNAIY (XV asr) − fors-tojik shoiri. Oriflar sultoni Abusaid Abulxayr avlodidan bo‘lib, ko‘p ilmlarda o‘z davrining yagonasi edi. Hirot adabiy doirasida o‘z mavqeyiga ega bo‘lgan. N.ning ma’lumot berishicha, “Agarchi majnunshior kishidir, ammo chun salim fitrati bor, gohgoh tiliga nazmlar o‘tar”. Asosan, g‘azal yozgan, ijodidan juda oz namunalar yetib kelgan.

Hajrida biror kechaki yo‘q, motam emas,
Yorsiz bu hazinning kuni tundan kam emas.
So‘zimni unga aytgali bir mahram yo‘q,
So‘zimni unga aytgan esa mahram emas.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т.,*

2011; Ҳасанхожа Нисорий. Музаккири аҳбоб (И.Бекжон тарж.) – Т., 1993; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1989; Донишмандлар туҳфаси. – Т., 2009.

E.O.

MEHRIY HIROTIY (t.y.n. – v. taxm. 1449, Hirot) – shoira, Shohrux Mirzoning, saroy tabibi Abdulaziz Hakimning xotini. M.H. g‘oyat jasurlik b-n hajviyalar yozgani u-n Shohrux uni zindonband qilgan. Zindondan ozod bo‘lgach, M.H. saroydan tamomila chetlashgan. Ba’zi manbalarda M.H. sohibdevon shoira deb xabar qilinadi va unga oshiq va ma’shuqaning savol-javoblari tarzida yozilgan masnaviyni ham nisbat beriladi.

“M.N.”da Mavlono Sulaymoniy degan shoir munosabati b-n M.H. yodga olingan. Sulaymoniy haqidagi ma’lumotlardan so‘ng keltirilgan ikki baytdan keyin N. yozadi: “Va mashhur budurkim, bu abyot Mavlono Hakim Tabibning xotini Mehriningdur. Va bu faqir siqa el (ishonchli odamlar)dan eshittimkim, Sulaymoningdur. Vallohu a’lam!” (ya’ni, rostini haq biladi). Qator tazkiralar bu baytlarni Mehriniki deb ko‘rsatadilar. M.H. forsiyda ijod qilgan va ko‘pincha badihona she’r aytgan. M.H. nihoyatda go‘zal va shirinsuxan, sho‘x va nazokatli ayol bo‘lgan. M.H. o‘zining bilimdonligi, latofati hamda so‘zga chechanligi tufayli Ulug‘bek mirzoning onasi Gavharshodbegimga suhbatdosh va nadimalik darajasiga noil bo‘lgan.

N. keltirgan quyidagi matla’ va bayt:

Halli har nuktaki, bar piri xirad mushkil bud,
Ozmudem, ba yak chur’ai may hosil bud.
Go‘ftam az madrasa pursam sababi hurmati may,
Dari har kas ki, zadam behudu loya’qil bud.

Tarj.: Aql ustodi uchun yechilishi qiyin bo‘lgan nozik ma’no, sinab ko‘rganimizda bir qultum may bilan hosil bo‘lar edi. Mayning haromligi sababini madrasa ahlidan so‘ray dedim, kimning eshigini qoqsam, (undagilar) xushsiz va alast bo‘lib yotgan edi.

M.H. she’rlari zamirida Sharq ayollarining fojiali qismati haqidagi nolalari yotadi.

Uning she’rlarida kutilmagan tashbeh va noyob timsollarni uchratamiz. M-n, ko‘z qorachig‘i – mardumini tezkor qassobga o‘xshatish, kiprikni qassob go‘sht iladigan qanoralarga nisbat berish, ularga pora bo‘lgan dillarni ilib tashlash yangicha talqin, yangi timsollardir.

M.H. ruboiylaridan birida uni to‘kis-tugal davlat, serhasham hayotini ta’na qiluvchilarga qarata: to‘g‘ri, hamma narsa bor, lekin men u-n zaruri yo‘q, hurkak dilim tugunlarini yechadigan narsa yo‘q, deb armon b-n yozadi. Shoira o‘kinch b-n tilga olayotgan narsa balki erkdir, ozodlikdir, balki uning baxtsiz muhabbatidir.

“M.N.”ning tarjimoni Muhammad Qazviniy M.ning devoni borligi haqida ma’lumot beradi. Lekin hanuz bu aniqlanganicha yo‘q.

E.Ochilov shoira ruboiylaridan namunalar tarjima qilgan.

Yosh bo‘lsa ayol-u yori ammo keksa,
Haqli yuragi kuysa-yu afsus cheksa.

Yosh yor biqinida qari er yotganidan,
Yaxshidir uning biqiniga o‘q tegsa.

Haq bandasiga agar gunoh yarashadi,
Haqqa kechirib, bo‘lish panoh yarashadi.

So‘ndirma umidimni gunohkorsan deb,
Lutfing nuri bo‘lsa xayrixoh yarashadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ғаниева С. “Мажолис ун-нафоис”нинг форсий таржималаридан баъзи иловалар ҳақида. Ўзбек тили ва адабиёти масалалари, №11. 1964; Ғаниева С. Шоира Меҳри. Ўзбекистон маданияти, 9.5. 1960; Гулшани адаб. – Душанбе, 1976.*

S.G‘.

MING (minglar) – o‘zbek xalqi tarkibiga kirgan qabilalardan biri. Hozirgi Samarqand viloyati, qisman Farg‘ona vodiysi hamda Buxoro vohasida, tarqoq holda Surxondaryo viloyatining Boysun, Sherobod, Denov tumanlarida, Xorazmda va Tojikistonning Hisor tumanida yashaganlar. Zarafshon vodiysida yashovchi M.lar 3 yirik urug‘ga, bu urug‘lar, o‘z navbatida, yana bir qancha kichik urug‘larga bo‘lingan: 1) tug‘ali (axmat, chag‘ir, to‘yi namoz, oqshiq va boshqalar); 2) bog‘lon (chibli, qora, mirza va boshqalar); 3) uvoq tamg‘ali (alg‘ol, chaut, jayli, o‘ramas, to‘qnamoz, kiyuxo‘ja, yarat) urug‘lari. M.lar boshqirdlar tarkibiga ham kirgan. Qo‘qon xonlari M.lardan bo‘lgan va xonliqdagi muhim mansablarni M.ning beklari egallab kelgan. O‘ratepa va Urgut beklari ham M.lardan bo‘lgan.

N. qipchoq o‘zbeklari qatorida M. urug‘ini alohida ehtirom b-n tilga olgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

S.O‘.

“MING BIR KECHA” VA “SAB’AI SAYYOR” – Jahon kezgan “Ming bir kecha” asari qahramoni Shahrizoda har tun shoh Shahriyorga so‘zlab beradigan ertaklari qatorida “Kanizak bilan zargar” hikoyasi ham o‘rin olgan. Unda kanizak shohga bir duradgorning suratdagi qizga oshiq bo‘lganligi-yu, ishq dardiga mubtalo bo‘lib, qizni topish u-n har qanday mashaqqatga roziligi haqida so‘zlaganlari bor. Hikoyada keltirilishicha, duradgor yigit suratdagi qizga oshiq-u beqaror bo‘lib, ishq dardi uni betob qilib qo‘yadi. Bir kun do‘stlaridan biri uning holidan xabar olgani kelib, betobligining sababini so‘raganida, u: “...E birodar, dardim og‘ir, kasalimning sababi yuragimga tushgan ishqdan. Men falonchi do‘stimning uyida osig‘liq turgan suratga oshiq bo‘lib qoldim”, - degan edi, do‘sti koyib: “...Jinni bo‘lgansan, do‘stim. Suratga kishi oshiq bo‘ladimi, axir, u jonsiz narsa-ku, shu ham gap bo‘ldimi? - Rassom qandaydir bir go‘zal xotinning suratini chizganda”, - deydi.

Yuqorida keltirilgan voqealar jarayonidagi ayrim lavhalar Mir N. hazratlarining “S.S.” asaridan ham o‘rin olgan: Ovni yaxshi ko‘radigan shoh Bahrom sahroda kezib yurgan yo‘lovchini oldiga chaqirib, undan kimligini so‘raydi. U shaharma-shahar kezib, shoh Bahrom b-n uchrashish orzusida ekanligini, unga qalbidagi sirni aytmoqchiligini, o‘zi esa bir rassom ekanligini so‘zlaydi. Shoh Bahrom o‘zini tanitgach, u deydi: “Eshitishni lozim ko‘rsalar, uni arz etayin: meni jahon ellari Moniy deb ataydilar. Xotirim juda ko‘p bilimlar bilan boyigan, lekin dunyoda rassomlik bilan shuhrat qozonganman”.

Shundan so‘ng jahongashta rassom – Moniy ko‘p mamlakatlarda bo‘lgani-yu, ko‘p hodisalardan xabardor ekanligini so‘zlarkan, shu jumladan, Xitoyda ham bo‘lib, bir savdogarning bazmida soz cholg‘uvchi qizni ko‘rganini aytadi: “U shunday mahvash – go‘zal o‘yinchiki, uni ko‘rib butun Xitoy – Chin xalqlari bezovta bo‘lib qolgan. Odam bolasi unga shunchalik o‘z jonini bergudek bo‘ladi-ki, mabodo, biron odam uni ko‘rganda jon bermay qolsa, u go‘zal o‘z qo‘liga chang olarkan, endi uning holiga voy, deyavering. Agar uning changi jonfido sado chekib, o‘zi u ohangga jo‘r bo‘lib navo qiladigan bo‘lsa, adoyi tamom bo‘ladi...”. Rassom bu qizning suratini chizganini aytib, Bahrom shohga uni ko‘rsatadi. “Shoh esa bu parining suratini ko‘rishi bilan devona bo‘lib qoladi”.

“Shahzoda va yetti vazir” bobining “Kanizak va zargar” hikoyatida esa zargarni ko‘rgani kelgan kishilar suratni chizgan rassomni surishtira boshlaydilar. Rassom bir shaharga ketgan ekan, topilmaydi. “Birodarlari uning holiga achinib, rassomga quyidagi mazmunda xat yozib: “Suratingni xayoldan chiqarib chizgan edingmi yoki dunyoda shunday ayolni ko‘rgan edingmi?” - deb so‘radilar. Rassom esa ularga: “Men Hind mamlakatining Kashmir shahri vazirlaridan birining sozanda kanizagining suratini chizgan edim”, - deb javob yozdi.”

Ko‘rganimizdek, N.ning Bahromi – “M.B.K.”dagi zargar yigit, Dilorom – kashmirlik

sozanda – kanizak, rassom – Moniy – “M.B.K.”-dagi qaysidir rassom. Bu – obrazlardagi o‘xshashlik. Lavhalardagi o‘xshashlik esa, Bahromning (yoki zargarning) go‘zal qiz suratini ko‘rib, oshiq bo‘lishi, ikkalasining ham ishq dardida betoblanishi, husnda tengi yo‘q Dilorom xitoylik savdogarning sozandasi, hikoyatdagi go‘zal qiz – Hind mamlakatining Kashmir viloyati vazirlaridan birining sozanda kanizagi.

Biroq, N.ning Bahrom – shoh, hikoyat qahramoni – zargar, shoh Bahrom u-n u qiz Xitoyning bir yillik xirojidan voz kechish evaziga erishiladigan ma’shuqa, hikoyatdagi zargar u-n hiylanayrang ishlatish orqali erishiladigan ma’shuqa. Chunki hikoyatda zargar tug‘ilib o‘sgan Fors mamlakatidan Hind mamlakatiga borib, u yerda turli hiyla-nayranglar ishlatib, qizni o‘z yurtiga olib qochish lavhalari ifoda etiladi.

Diqqat qilsak, “M.B.K.”dagi bu hikoyat (“Kanizak va yetti vazir”) aslida Shahrizoda o‘z xojasi – Shahriyorni ishq yo‘lida nafaqat ayollar, balki erkaklar ham o‘zligini yo‘qotib qo‘yishi mumkinligini aytib, uning g‘azab o‘tini so‘ndirishga bo‘lgan harakati deb tushunamiz. G‘oya esa ma’lum - ishq domiga tushib qolgan shaxsni ayblamaslik. Biroq biz hamisha ham “M.B.K.” ilgari surgan g‘oyalarga qo‘shila olmasligimiz aniq.

N. bu syujetni boshqacharoq ifoda etib, uni kengaytirib, ishq deb atalmish bu tuyg‘uni yuksaklarga ko‘targan holda Bahrom Go‘r obrazi orqali ko‘rsatgan.

N. bu syujetdan o‘zining ilg‘or g‘oyalarini ifoda etish maqsadida foydalanib, qoliplovchi hikoyaga kirgan novellalarni ixchamlashtirib, mazmun va shakl jihatidan mukammal asar yaratishga muvaffaq bo‘lgan. Muhimi shundaki, N. yetti hikoyani dostonning asosiy qismi bo‘lib hisoblanuvchi qoliplovchi hikoya b-n chambarchas bog‘lagan. Bu bog‘lanish san’atkorning mahorati tufayli yettinchi hikoya orqali ustalik b-n amalga oshirilgan. Bu esa dostonning bir butun kompozitsion zanjirga ega bo‘lgan asar sifatida shakllanishni ta’minlagan.

“M.B.K.” asari ham qoliplovchi hikoyatlar majmuyidan iborat bo‘lsa ham, tahlil markazida turgan mazkur hikoyat yaxlit bir butun asar emas, u bir kichkina hikoyat, xolos. Shuning u-n bo‘lsa kerak, garchi hikoyatda zargarning aysh-ishratni yaxshi ko‘rishi haqida gap borsada, bu narsaga u qadar ahamiyat qaratilmaydi. Biroq, “S.S.”da muallif aysh-ishrat, xotinbozlik, behad ovga berilib ketishlikni qoralaydi. Insonning aql-zakovati, mehnati, qalbining pokligi, sevgisi ulug‘lanadi, tinchlik, do‘stlik, ozodlik, axloqiy-etik xarakterdagi masalalar davrning dolzarb vazifalari sifatida ko‘tarib chiqiladi.

Manbashunos olim S.Hasanov N.ning “S.S.” dostoni nasriy bayoni b-n 1991-y.da nashr ettirilgan nusxasiga so‘ngso‘z yozarkan, deydi: “Buyuk san’atkor o‘zining falsafiy, estetik, axloqiy-etik va ijtimoiy g‘oyalarni badiiy ifodalash maqsadida xohlagan syujetdan foydalanishi mumkin. Nizomiy sosoniy shohi Varaxran V (42-438) ning tarjimayi holi, Eron va Kavkaz xalqlari o‘rtasida u haqda tarqalgan afsona va ertaklar, shuningdek, “Kitob-u salotin” asaridagi bu haqdagi ma’lumotlarning Firdavsiy tomonidan badiiylashtirilgan lavhalarini “Haft paykar” asari syujetiga asos qilib olgan... Xusrav Dehlaviy Bahrom to‘g‘risidagi bu syujetni o‘z davri talablari va ehtiyojlaridan kelib chiqib, o‘zining estetik qarashlariga moslagan”.

Shunday qilib, “M.B.K.”ning mazkur hikoyati ilgari surgan g‘oya va mazmundan farqli o‘laroq, “S.S.”da mavzu, g‘oya boshqa xil tus oladi. N. o‘z dostonida ko‘proq ayollarning ijobiy obrazlariga kitobxon diqqatini qaratadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Сабъайи сайёр. Таҳрир ҳайъати: Қаюмов А. ва бошқ. Масъул муҳаррир: Ҳасанов Б. – Т., 1991; Минг бир кеча. Араб эртаклари. Ҳакимжонов Ю. тарж. – Т., 1962. 8 жилдлик. Жилд 5; Минг бир кеча. Араб эртаклари. Ҳакимжонов Ю. тарж. – Т., 1962.*

G.A.

“MINHOJ UN-NAJOT” (“Najot yo‘li”) – N.ning fors-tojik tilidagi “Sittayi zaruriya” qasidalar turkumining 5-qasidasi. Hazaji musammani maqsur vaznida yozilgan 138 baytli mazkur qasida Xoqoniyning “Mir’ot us-safo” (“Safo ko‘zgusi”) qasidasi va Anvariyga tatabbu’dir. “M.L.” asarida muallifning o‘zi uning mavzusi bobida shunday deydi: “Yana “Minhon un-najot” qasidasida hidoyat tariqin tuzupmen va zalolat ahliga najot shahrohin ko‘rguzupmen”.

Qasidaning asosiy qismida inson nuqsonlarini ochib ko‘rsatish va bu nuqsonlardan qanday qilib qutulish haqida yozadi, insonni axloqiy-ma’naviy kamolot sari har doim, hamisha kurash olib borishga da’vat etadi. Qasidaning 86 bayti aynan shu g‘oya talqiniga bag‘ishlangan. Shoir nazdida, Odam (a.s.)ning jannatdan quvilgani qanchalik achinarli va fojiali bo‘lsa, uning o‘zini, o‘z burchi, oliy vazifalarini anglamay, g‘ofil bo‘lib, hirs-u havas, yolg‘on va riyo, tanparvarlik, fahshga berilishi ham shuncha fojiali va achinarli. Shu sababli u xiyla keskin va satirik ohangda illatlarimizni oynada ko‘rsatganday birma-bir ko‘rsatib o‘tadi. Har bir illat, har bir nuqs-u badaxloqlik insonni tubanlikka olib borishi, uning o‘sha jannatiy nomiga isnod keltirishini ta’kidlaydi. Odamlar buni anglamaydilar, bugina emas, ular qabih ishlarini e’tiqod-imon b-n berkitmoqchi bo‘ladilar. Adibning mazammatlari baytdan baytga kuchayib boradi, baytdan baytga biz turli xildagi nuqsonlar, kamchiliklarning falokat keltiruvchi poetik sharhini o‘qib boramiz. Shoir bu b-n odamlarni ogohlantiradi. Natijada, asarni o‘qib qadam-baqadam haqiqiy taqvo va halollik, rostgo‘ylik va to‘g‘rilik yo‘li nima ekanini anglaymiz.

Qasidani o‘qigan kishi quyidagi nuqsonlar N.ning rad etuvchi satirik bahosiga “sazovor” bo‘lganini ko‘radi: g‘ofillik, gunoh qilib tavba qilmaslik, imonining sustligi, zolim nafs talablarini Alloh muhabbatidan ustun qo‘yish, o‘zini har xil tusga kiritib, turlicha tovlanib yurish, musulmonman deb kerilib, musulmonchilik ishidan bexabarlik, takabbur-manmanlik, xasislik, riyokorlik, hiyla-nayrang, firibgarlik, lazzatparastlik, fahshga berilish va h.k.

Ad.: *Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Девони Фоний. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ситтаи зарурия. – Т., 2008; Комилов Н. Хизр чашмаси. – Т., 2005.*

E.O.

“МИР–АЛИ-ШИР” – rus sharqshunos olimlarining N. hayoti va ijodiga bag‘ishlangan ilmiy maqolalarning birinchi to‘plami. Qamariy yil hisobi bo‘yicha N. tavalludiga 500 yil to‘lishi (1926-y.) munosabati b-n nashrga tayyorlangan va 1928-y.da Leningradda bosib chiqarilgan. To‘plam nashr muallifi atoqli rus sharqshunosi V.V. Bartoldning kichik “So‘zboshi”si b-n ochiladi. To‘plamda A.N.Samoylovichning tilshunoslikka oid “O‘rta Osiyo-turk adabiy tili tarixiga doir” hamda A.A.Romaskevichning “Yangi chig‘atoy-fors lug‘ati” nomli maqolalari o‘rin olgan. Bu maqolalarda N.gacha bo‘lgan qadimiy turkiy yozma yodgorliklar (Mahmud Koshg‘ariy, Rabg‘uziy, Xorazmiy, Qutb va boshqalar), shuningdek, Fath-Ali-Xon Kojariyning N. asarlariga tuzilgan lug‘ati bo‘yicha bahs yuritiladi. Ammo to‘plamning katta ilmiy qimmati unda yirik sharqshunos olim Y.E. Bertelsning “Navoiy va Attor” hamda akad. V.V. Bartoldning “Mir Alisher va siyosiy hayot” nomli tadqiqotlarining kiritilishi b-n belgilanadi. Y.Bertels o‘z tadqiqotida ayrim rus va Yevropa sharqshunoslari asarlarida hukm surib kelgan va turkiy xalqlar yaratgan adabiy yodgorliklarning o‘ziga xos darajasini amalda kamsituvchi g‘ayriilmiy qarash va xulosalarga jiddiy zarba beradi. Jumladan, u yoki bu aniq asarni baholashda formal tomonlari va zohiriy belgilari (syujet liniyasi, qurilishi va h.k.)ga qarabgina xulosa chiqarish xato ekanligini Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” va N.ning “L.T.” asarlarining aniq obyektiv va detal qiyosiy tahlili orqali namoyish qiladi.

“L.T.” dostonining o‘z g‘oyaviy-badiiy qimmatiga ega to‘la ohoriy asar ekanligini ishonchli isbot etgan bu tadqiqot n.shunoslik fanining shakllanishi va rivojlanishida muhim bir bosqich bo‘lib qoldi.

V.V.Bartoldning olti bo‘limdan tashkil topgan kattagina hajmli tadqiqotida N.ning, asosan, davlat arbobi hamda fan, san’at, hunar va adabiyot ahliga g‘amxo‘rligi va homiylik faoliyati xususida so‘z boradi. Shoir tarjimayi holi va ijtimoiy faoliyatining barcha muhim nuqtalari, inson sifatidagi yuksak fazilatlari, chuqur bilimi va keng qiziqish doirasi, ijtimoiy-siyosiy hayot va saroydagi katta nufuzi birinchi manbalar (Mirxond, Xondamir, Davlatshoh, Abdurazzoq Samarqandiy, Zahiriddin Bobur, Vosifiy va boshqa mualliflar asarlari) asosida, shuningdek, rus va g‘arb sharqshunoslari Belen, M.Nikitskiy va boshqa ilmiy ishlari bo‘yicha tartibli va batafsil yoritiladi. N.ning Husayn Boyqaro davlatini mustahkamlash va imkon doirasida obodonlashtirishda tutgan faol ijtimoiy-siyosiy o‘rni ishonarli faktlarda keng bayon etiladi. V.Bartoldning bu muhim tadqiqotidagi jiddiy nuqson sifatida unda N.ning yozgan asarlari, adabiy-ilmiy faoliyati, davr adabiy-madaniy hayotida o‘ynagan katta roli to‘g‘risida, deyarli, so‘z bormasligini ko‘rsatish mumkin.

To‘plamning xos xususiyatlaridan biri unda “Tanqid va bibliografiya” bo‘limi mavjudligidir. Bu bo‘lim Y.E.Bertelsning taqrizi b-n ochiladi. Unda A.A.Semyonovning “Mir Alisher Navoiy haqida fors novellasi” nomli tadqiqoti to‘g‘risida ancha keng so‘z boradi.

Bo‘limdan akad. A.N.Samoylovichning to‘rt xabar va taqrizlari ham o‘rin olgan. Birinchisi, 1926-y.da Bokuda nashr etilgan “Navoiy” maqolalar to‘plami haqida bo‘lib, uning asosiy mundarijasini bayon qiladi.

Ikkinchisida esa, qamariy yil hisobi b-n N. ning tug‘ilganiga 500 yillik yubileyiga shoirning “M.” va “V.” asarlarining 1926-y.da prof. Ismoil Hikmat va prof. Cho‘ponzodalarning maqolalari b-n birga Bokuda nashr etilganligi xabar qilinadi. Yana bir xabarda esa, Husayn Boyqaroning 127 g‘azal va uch murabba’sidan tashkil topgan “Devon”ining nashri (Azarnashr, Baku, 1926) haqida ma’lumot beriladi. A.N.Samoylovichning to‘plamga kiritilgan so‘nggi taqrizi “M.L.” asarining A.Qulmuhamedov tomonidan turkmanchalashtirilgan nashriga (полтарацк-Асхабад, 1925) bag‘ishlangan bo‘lib, unda nashrning yutuq va nuqsonlari haqida so‘z boradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Вақфия. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Муншаот. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

A.A.

MIR ALI MIROXUR (XV asr,) – N.ga zamondosh bo‘lgan amirlardan. Husayn Boyqaro b-n Yodgor Muhammad mirzo o‘rtasida bo‘lgan toj-taxt u-n kurashlarda ishtirok etgan. Jumladan, 1469-y.da Husayn Boyqaro Yodgor mirzoga qarshi qo‘shin tortganda, M.A.M.ni Said Murod o‘g‘loqchi, Shayxim Omil o‘g‘li singari beklar b-n qo‘shinning ilg‘or qismi sifatida oldinga yuborgan. U tomondan Yodgor mirzoning amir Ali Jaloyir boshchiligidagi ilg‘or qo‘shini ularga qarshi chiqqan. Ikki o‘rtada bo‘lgan jangda amir Ali Jaloyir g‘alaba qozongan. Amir Said Murod o‘g‘loqchi halok bo‘lgan. Husayn Boyqaro beklari, shu jumladan, M.A.M. ham chekinib, asosiy qo‘shinga kelib qo‘shilganlar. Keyinchalik o‘zaro kurashda Yodgor mirzoning qo‘li baland kelgan paytda M.A.M. u tomonga o‘tib ketgan. Yodgor mirzo Hirot taxtini egallaganda M.A.M. uning huzurida edi. Yodgor mirzo va uning yaqinlarining davlat ishlarida beparvoligini ko‘rgan M.A.M. yana Sulton Husayn tarafiga o‘tishni mo‘ljallagan va Hirotdagi ahvol hamda Yodgor mirzoning g‘aflatda ekanligidan Husayn Boyqaroga xabar bergan. Sulton Husayn mirzo Murg‘obdan shiddat b-n Hirotga yurish qilgan va tunda uning qarorgohini egallab, qo‘lga tushirgan. 1479-y.da Abubakr mirzo Xuroson hududiga bostirib kirganda, Sulton Husayn unga qarshi qo‘shin tortgan. Abubakr mirzo qochib, Gurgon daryosi bo‘yiga kelgan. Husayn Boyqaro qo‘-

shini uni quvib daryodan o‘tgan. M.A.M. nomi manbalarda daryoni birinchilardan bo‘lib kechib o‘tganlar ichida tilga olingan. Abubakr mirzo qo‘lga olingan va o‘ldirilgan (1479). Yuqorida tilga olingan M.A.M. qatnashgan voqealarda, xususan, Yodgor mirzoga qarshi harbiy harakatlarda N. ham faol ishtirok etgani manbalardan bizga ma’lum. Abubakr mirzoga qarshi yurishda N. bevosita ishtirok eta olmagan, chunki Sulton Husayn Boyqaro Hirotni unga topshirib ketgan edi. Lekin N. bu voqealarni diqqat b-n kuzatib borgan. Bu voqealar va Abubakr mirzoning o‘limi N.ga qattiq ta’sir qilgani Xondamir asarida qayd qilingan.

Ad.: *Навоий замондошлари хотирасида. – T., 1985; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – T., 2002.*

Q.E.

MIR ASADULLOH (XV–XVI asr, Simnon) – shoir. Ilm tahsili u-n Hirotga kelib, N. madrasasida tahsil olgan. “M.N.” tazkirasida N. “Surat va siyrati yaxshi yigitdur” deb uni ta’riflab, “Anis” nomiga yozgan bir muammosini keltiradi:

Rezad az chashmi tari ahli muhabbat muttasil
Otashi hijroni o‘ nochor ashk-u xuni dil.

Tarj.: Uning hijroni otashi muhabbat ahlining ko‘zidan muttasil nochorlik ashki-yu dil qonini to‘kadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – T., 2011.*

E.O.

MIR YODGORBEK (XV asr) – shoir. Sayfiy taxallusi b-n ijod qilgan. Xurosonning asil va taniqli amirzodalaridan bo‘lib, ota-bobolari Amir Temur va Shohrux mirzoning amirlaridan bo‘lishgan. Otasi Amir Jahon Mulk Temurning nomdor amirlaridan edi. Shohrux mirzo hukmronligi davrida ham nufuzli mansabda turgan. M.Y.ning o‘zi xushta’b va latif kishi bo‘lgan. Shohrux mirzo saroyining amirlaridan bo‘lib, meros masalalari b-n shug‘ullangan. Abulqosim Bobur davrida bu g‘avg‘oli xizmatni tark etib, faqr-u fano yo‘lini tutgan va xilvatga chekingan. N. “M.N.” tazkirasida ma’lumot berishicha, xoksor, oddiy, foniytabiat kishi bo‘lgan. G‘alladan oladigan arzimas hosiliga qanoat qilib yashagan. So‘fi-yu darveshlar davrasida yurgan va ulardan borini ayamagan. Qabri Saripulda – ota-bobolari mozorida. N. yaxshi matla’lari bor deb, ulardan 2 tasini namuna sifatida keltiradi:

Dar barat pirohani katon zi tahriki nasim
Hast chun kisayi larzanda ba boloyi sim.

Tarj.: Egningdagi kanop ko‘ylagingning shamolda hilpirashi kumush ustida cho‘ntakning titrashiga o‘xshaydi.

Sarvi man sabz ast-u shirin, rost
hamchun nayshakar,
Chun ba boloyi qaboyi barg nay bandad kamar.

Tarj.: Mening sarvim (sevgilim) yosh, go‘zal, shakarqamishdek mavzundir, ko‘ylagi ustidan bog‘lagan kamari qamishning bandiga o‘xshaydi.

Omadi, ey sham-u, majlisro chu gulshan soxti,
Poy dar chashmam nihodi, xona ravshan soxti.

Tarj.: Ey sham, kelding-u majlisni go‘yoki gulshanga aylantirding, ko‘zimga oyog‘ingni qo‘yib, qorachig‘imni ravshan qilding.

Davlatshoh Samarqandiy esa “Tazkirat ush-shuaro”sida uning ijodidan bir g‘azal va bir matla’ keltiradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – T., 2011; Давлатшоҳ Самарқандий. Тазкират уш-шуаро. Теҳрон, 1338 (ҳ.-ш.).*

E.O.

MIR IBROHIM – “M.N.” tazkirasining beshinchi majlisida zikr etilgan, N.ga zamondosh shoirlardan birining nomi. M.I. Sulton Husayn deganning o‘g‘li bo‘lib, N. ning akasining nabirasi bo‘lgan. N. uni o‘ziga o‘g‘il qilib olgan va tarbiyalagan. Bu haqda tazkirada shunday deyiladi: “Mir Ibrohim – Sulton Husaynning o‘g‘lidur va faqirning og‘asining nabirasidir. Faqir ani o‘g‘ilchilay asrabmen.” Tazkirada M.I.ning she’rlaridan bir bayt namuna berilgan.

Biroq shuni ham aytish kerakki, M.I. nomi “M.N.” tazkirasining oldingi tahririda uchramaydi. M.I.ni N. o‘z tazkirasining keyingi tahririgagina qo‘shgan. Keyingi tahrir oradan sakkiz yil o‘tib, 1498-y.i bajarilgan. M.I. nomining birinchi tahrirga qo‘shilmaganining sababi “M.”dagi:

“Ey nafs havosiga giriftor o‘lg‘on,
Shayton shunga ishing namudor o‘lg‘on.
Ham zuhd ila izzatqa sazovor o‘lg‘on,
Ham fisq ila olam eliga xor o‘lg‘on”, –

degan ruboiy b-n boshlanuvchi maktubda ochib berilgan, – deb taxmin qilish mumkin. Chunki bu maktubda N. farzand qilib asrab olgan va katta mehr b-n tarbiyalagan o‘g‘lining noqobil chiqqanidan shikoyat qilib, uning o‘ziga ushbu maktubni yo‘llagan. Maktubda shunday satrlar bor: “Hayotimni sening tarbiyatingg‘a mash’uf va avqotimni sening muhofazatingg‘a masruf qildim va farzandlig‘ing raqamini xotirimg‘a va otalig‘ mehri va shafqatin holingg‘a muqarrar ettim. Oy-u yilda bir kun, balki kechalik, kunduzlikka bir soat ahvolingdan g‘ofil bo‘lmadim va rioyating qoidasin el ko‘rgudek tuzdum, balki ko‘rganlar rashk yuzidin hasad yegudek ko‘rguzdum. Zohiringni ahli zohir funun va fazoyil bila orasta va botiningni ahli botin haqoyiq va maorifi bila pirosta bo‘lurg‘a sa’y qildim...”.

Shu voqea “N.Sh.”dagi shoirning qariligida yozilgan quyidagi bandning yuzaga kelishiga ham sababchi bo‘lgan bo‘lishi mumkin:

Xossa ma’nilarim el qilsa, tasarruf qildik,
Kishi farzandi qachon kimsaga farzand o‘lmish.

Yillar o‘tib, N.ning samimiy gaplari ta’sir etib, M.I. yaxshi yo‘lga qaytgan bo‘lsa kerakki, “M.N.”ning ikkinchi tahriridan unga tegishli o‘rin berilgan. N. “M.N.”da uning “shohim“ va “mohim” ismlari kelib chiqadigan bir muammosini keltiradi:

Az sari mehr, ey nigori dilnavoz,
So‘yi Ibrohimi bedil bin ba noz.

Tarj.: Ey dil oluvchi yor, mehr ko‘rsatib, oshiq Ibrohim tomonga noz bilan bir qara.

Ad.: *Алишер Навоий. Наводир ушшабоб. ТАТ. 10 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2011; Ҳайитметов А. Мерос ва ихлос. – Т., 1985; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Абдуқодиров А. Амир Алишер Навоий. – Хўжанд, 2013.*

S.G‘.

MIR IMOD MASHHADIY (XV asr, Mashhad) – shoir. Musaviy taxallusi b-n she’r yozgan. N.ning “M.N.” tazkirasida ma’lumot berilishicha, donishmand, xushxulq va xushta’b kishi bo‘lgan. Mashhad shoirlari uning atrofiga yig‘ilganlar. Uni o‘zlariga rahnamo sanab, yo‘rig‘idan chiqmaganlar. Muammo fanida ham mahorat sohibi edi. Jumladan, Kamol Xo‘jandiyning mashhur g‘azaliga tatabbu’ qilgan:

Guft bo chashmat bigo‘: to juz
xayoli ro‘yi mo,
Surati digar nayorad dar nazar,
guftam: ba chashm!

Tarj.: Ko‘zlaringga aytki, bizning yuzimiz xayolidan bo‘lak suratni nazariga keltirmasin dedi, men ko‘z ustiga, ya’ni jonim bilan dedim.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

M.A.

MIR MAXDUM I – (taxallusi; ismi: Sayidmuhammad) (XV asr, Nishopur) – shoir. Otasi Makkadan Imom Rizo ziyorati u-n Mashhadga kelib, qaytishda Nishopurda uylanib, muqim yashab qoladi (ba'zilar Mashhadda deydilar). U shu yerda uchinchi farzand bo‘lib tug‘iladi. Boshlang‘ich ma'lumotga ega bo‘lgach, tahsilini kamolga yetkazish u-n Hirotga keladi. Bu yerda o‘z davrining asosiy ilmlarini egallaydi. Hirot adabiy muhitida ishtirok etib, fazl ahli b-n tanishadi. Bu vaqtda Qosim Anvor maydonga chiqib, shuhrati hammayoqni tutgan payt edi. M.M. kamoli ixlos b-n unga murid tushib, uning tarbiyasida riyozat bosqichlarini bosib o‘tadi. Sidqidildan qilgan xizmatini ko‘rib, ustozi uni ulug‘lab, Mir Maxdum faxriy nomini beradi va hamisha uni aziz va mukarram tutadi. N.ning "M.N." tazkirasida ma'lumot berishicha, u "Hazrati Mir Qosimg‘a xalifa va farzand va mahbub masobasida erdi... poktiynat va sohibdavlat yigit erdi". Ta'bi nazmi ham bo‘lib, quyidagi matla' uning ijodiga mansub:

Mutrib, bizan tarona-yu, soqiy, biyor jom,
Xunash halol on, ki biguftast may harom.

Tarj.: Mutrib, sen sozingni chal-u, soqiy, sen qadah tut. May harom degan kishining qoni (ni to‘kish) haloldir.

Qabri Nishopurning Mehrobod degan joyida.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 2. – Душанбе, 1989.*

E.O.

MIR MAXDUM II – to‘liq nomi Mir Maxdum ibn Shohyunus. XX asr boshidagi Turkistondagi madaniy-adabiy hayotning faol ishtirokchisi, noshir, N. "X".si tarkibidagi to‘rt dostonning nasriy bayonini yaratgan adib. Tug‘ilgan va vafot etgan yillari ma'lum emas. Toshkentda yashab faoliyat ko‘rsatgan.

M.M. Sharq mumtoz adabiyotining bir qator namunalarini nashr ettirgan. Ular orasida Zahiriddin Muhammad Boburning "Mubayyin" Firdavsiy "Shohnoma"sining o‘zbekcha tarjimasi, "Kalila va Dimna", "Devoni Qoriy" singari asarlar bor.

M.M. N. ijodiga alohida hurmat b-n qaragan va shoir asarlarini xalqqa yaqinlashtirish, uning go‘zal she'riyatidan jamiyatning barcha tabaqalarini bahramand etish yo‘lida xizmat qilgan. Bu borada u amalga oshirgan tahsinga sazovor ish N. "X."sidagi besh dostondan to‘rttasining nasriy bayonini yaratganligidir. "Nasri Xamsayi benazir" nomi b-n mashhur bo‘lgan ushbu nasriy bayon "S.I.", "S.S.", "L.M.", "F.Sh." dostonlarining mazmunini o‘z ichiga oladi. M.M. bu ishni katta mehr-muhabbat b-n amalga oshirgan. Uning asar muqaddimasida bitgan so‘zlari, bir tomondan, nasriy bayon muallifining buyuk shoir ijodiga bo‘lgan mehr va ixlosini namoyon etsa, ikkinchi tomondan, uning mazkur ishdan maqsadini, ya'ni, ko‘pchilik xalq ommasi N. asarlaridan bahra olishini ko‘zlagani ma'lum bo‘ladi. "Nasri Xamsayi benazir" 1908-y.da Toshkentda nashr etilgan. M.M. qalamiga mansub ushbu nasriy bayon o‘zining bir qator xususiyatlari b-n ajralib turadi (Q.: "Nasriy bayonlar" maqolasi).

Ad.: *Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-жилдлар. – Т., 2011; Эргашев Қ. Насри Хамсайи беназир. Ўз АС, 2009.*

Q.E.

MIR MURTOZ (t.y. va v.y.n., Hirot) – N. davri fozillaridan. "M.N." tazkirasining to‘rtinchi majlisida yozilishicha, yoshligidan ilm tahsiliga mashg‘ul bo‘lgan. Ko‘plab ilmlarni egallagach, shaxsiy mutolaaga beriladi. Kecha-kunduz ishi mutolaa edi. Zuhd-u taqvosi ham yuksak martabaga ko‘tarilgan bo‘lib, yillab ro‘za tutar edi. bu ranj-u riyozatlari tufayli ulug‘lar unga Mir Murtoz (Riyozat b-n nafsini jilovlaganlar amiri) deb nom qo‘yadilar va u

ushbu laqab b-n mashhur bo‘lib ketadi. Bobur esa “zohiriy ilmlar va hikmatni yaxshi bilgani uchun shunday ataganlar” deydi. Xondamir ham “Xulosat ul-axbor” (“Xabarlar xulosasi”) asarida uni mavjud ilmlarning barchasidan boxabar, hikmat va riyozat bo‘yicha esa tengi yo‘q olimdir, deb ta’riflaydi. Bahsga o‘ch bo‘lib, u b-n bahslashgan kishi yengilmaguncha qutulmas, hatto yengilsa ham qutulmas edi. Shaharning zarif va sho‘x kishilari ayni qilig‘i u-n uni “Vali shaloyin” – “Shilqimlar avliyosi” deganlar. Tahorat va namozni haddidan oshirganidan vosvos ham bo‘lib qolgan.

Shatranjga shunchalik berilgan kishi bo‘lganki, uni biladigan kishi qo‘liga tushsa, bir marta o‘ynamaguncha qutulmas edi. Shuning u-n shatranj o‘ynaydiganlar undan qochib yurganlar. Agarda 2 ta shatranjboz uchrasa, biri b-n o‘ynab, qochib ketmasligi u-n ikkinchisining etagidan ushlab turgan.

N. M.M.ning ilmga fidoyiligi haqida: “Kecha tong otkuncha va kunduz oqshom bo‘lg‘uncha ishi mutolaa erdi” – deb yozadi. Ilmlarni egallash M.M.ga qimmatga tushgan, u tez sog‘lig‘ini yo‘qotgan, shuning u-n zamondoshlari unga “Vali Shaloyin” (“Vali holsiz”, “Vali kasalmand”) deb laqab qo‘yganlar. U ilmiy bahslarda qizishib ketar, o‘z raqiblarini holdan toydirar, yengar, hatto mag‘lub qilganidan keyin ham uni o‘z holiga qo‘ymas ekan.

Keyinchalik M.M. shatranj o‘yiniga berilib ketgan bo‘lib, kim uning qo‘liga tushsa qo‘yib yubormas, u b-n, albatta, o‘ynar, mabodo ikki odam qo‘liga tushib qolsa, “biri bila o‘ynab, yana birining etagin berk (mahkam) tutib o‘ltururkim, biri qochsa, bori biri ilgida bo‘lg‘ay”. Mir Murtozning o‘z davrining qobiliyatli shaxmat ustasi ekanligini “Boburnoma”da Bobur ham qayd etadi (“Shartnoma ko‘p shag‘afi bor ekandur, bu marta badanim agar ikki har ir uchrasa, biri bila shatranj o‘ynab, yana birining etagini tutub o‘lturur ekandurkim ketmagay deb”). N. M.M. shaxsiyati b-n faxrlanib: “Va har taqdir andoq benazr kishi oz bo‘lg‘ay”, - deydi va uning she’riyatidan quyidagi baytni namuna sifatida keltiradi:

To nayoyad so‘y dil g‘ayri xayoli dilsiton,
Bar sari rah mardumoni chashm gashta didabon.

Tarj.: Dilsiton ma’shuqa xayolidan boshqa narsa ko‘ngilga kelmaguncha, yo‘l boshida ko‘z qorachig‘lari nazoratchilik qilgani qilgan.

Ammo M.M.ning fanning qaysi sohalari b-n shug‘ullangan, N. b-n uchrashgani to‘g‘risida aniq ma’lumot yo‘q.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985; Тарихи Рашидий. – Т., 2010; Заҳириддин Муҳаммад Бобур, Бобирнома. – Т., 1960.*

Ab.H., E.O.

MIR MO‘G‘UL (Mo‘g‘ulbek,1492-y.da o‘ldirilgan) – N.ga zamondosh bo‘lgan amir va lashkarboshi. Uzoq yillar davomida Sulton Husayn Boyqaroga xizmat qilgan. Hirotda va Astrobodda (1480–1487, 1489–1491-yy.) hokim bo‘lgan. Husayn Boyqaro N.ni Astrobod hokimi etib tayinlash haqida qaror qabul qilgan vaqtda (1487-y., yanvar) Mo‘g‘ulbek Astrobod hokimi edi. Sultonning farmoni chiqqan va N. ushbu farmonga muvofiq Astrobodga kelgandan so‘ng M.M. viloyatni unga topshirib, o‘zi Marvga kelgan, chunki Husayn Boyqaro shu vaqtda Marvda qishlab turgan edi. N. birmuncha vaqt Asrobodni idora qilgandan so‘ng o‘z iltimosiga ko‘ra hokimlikdan ozod etilgan va ushbu viloyat hokimligi yana M.M.ga topshirilgan. 1490-y.da Astrobodning ulug‘ va e’tiborli kishilaridan Xoja Faxriddin Muzaffar bitikchi poytaxtga chaqiriladi. Bu yerga kelgandan so‘ng uning bo‘yniga qandaydir ayblar qo‘yilib, qamoqqa olinadi. Sulton uning mol-mulkini musodara qilishga farmon beradi va bir nechta beklar uni ijro etish u-n Astrobodga yuboriladi. Xoja Faxriddin Muzzafar, bitikchining odamlari hibsga olinadi. Lekin kutilmaganda M.M. Husayn Boyqaroning farmoniga xilof ish tutib, bitikchi qavmi tarafini olgan. Hirotdan kelgan beklar tomonidan qamoqqa olingan kishilar-

ni ozod qilgan hamda Sultonga sodiq bir nechta amaldorlarni, shu jumladan, N.ning Astroboddagi mulklarining boshqaruvchisi bo‘lgan Xoja Shamsiddin kurdni o‘ldirgan. Hirotdan kelgan beklar bu ahvolni ko‘rgach, poytaxtga qaytib ketadilar va bo‘lgan voqealarni Sulton Husayn Boyqaroga yetkazadilar. M.M.ning bu qilmishlari poytaxt Hirotda isyon sifatida baholangan va Sulton o‘g‘li Badiuzzamon mirzoni Astrobodga yuborib M.M.ni daf’ qilishni buyurgan. M.M. Badiuzzamon va uning qo‘shiniga qarshilik ko‘rsatishga jur’at eta olmagan va qochishga majbur bo‘lgan. U Iroq va Ozarbayjon tomonga ketadi. Bu vaqtda Iroq hukmdori Sulton Ya’qub vafot etgan va o‘g‘li Boysung‘ur taxtga o‘tirgan edi (hijriy 896, melodiy 1491). M.M. uning xizmatiga kirgan, lekin bu yerda hurmat va ishonch qozona olmagan. Bir necha oydan so‘ng Boysung‘ur mirzo muxoliflar b-n urishmoqchi bo‘lib turganda M.M.ning dushmanlar tomoniga o‘tib ketish niyati borligini fahmlab qoladi va uning buyrug‘i b-n M.M. So‘fi Xalilbek tomonidan qatl etiladi.

M.M. nomi N.ning “M.” asarida uchraydi. Undagi bir maktubda muallif Husayn Boyqaroning bir nechta beklari qatorida M.M.ni ham tilga oladi:

Ulki,tug‘mas onadin andoq o‘g‘ul,
Yakjihat banda shahqa Miri Mo‘g‘ul.

Baytning mazmunidan mazkur maktub M.M. ning isyonidan oldin yozilganligi anglashiladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Муншаот. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 2002.*

Q.E.

MIR SAID KOBULIY (o‘limi 1462 – Saraxs) – N.ning tog‘asi. Uni Said oqa deb ham ataganlar. O‘z davrining mashhur kishilaridan, lashkarboshi va shoir. O‘sha vaqtdagi siyosiy hayotda faol ishtirok etgan va Sulton Husayn Boyqaroning toj-taxt u-n olib bogan kurashida sodiq tarafdor bo‘lgan. 1461 –1462-yy.da Husayn Boyqaro Xuroson poytaxti Hirotni qamal qilgan. Sulton Abusaid tomonidan Hirotda qoldirib ketilgan beklar shaharni qattiq turib mudofaa qilganlari sababli uni egallay olmagan. Shu vaqtda Movarounnahrdan Abusaid mirzoning qaytib kelayotgani haqida habar tarqalgan. Husayn Boyqaro qamalni to‘xtatib, Astrobodga chekingan. Bu vaqtda u Saraxs qal’asini himoya qilish u-n M.S.K.ni kichik bir harbiy qism b-n qoldirgan. Sulton Abusaid mirzo o‘z qo‘shini b-n Saraxsga kelganda u yerdagilar qarshilik ko‘rsatishni befoyda deb hisoblab taslim bo‘lganlar. Sulton Abusaid M.S.K. dan boshqa hammani afv etgan. M.S.K. esa qatl etilgan (1462). U Husayn Boyqaroning sodiq kishilaridan bo‘lganligi u-n Sulton Abusaid uni avf etmadimi yoki boshqa bir sabab bo‘lganmi – bu haqda manbalarda ochiq-oydin ma’lumot berilmagan, faqat Abusaid ko‘nglida M.S.K.ga nisbatan oldindan kudurat bo‘lgani aytiladi. Abdurazzoq Samarqandiy bu voqeani shunday bayon qiladi: “Saraxs viloyatida Sulton Husayn qal’aga qo‘yib ketgan bir guruh kishilar onhazratning tal’ati oftobiga tob keltirolmay zarra yanglig‘ sarosima va beqarorlikka tushdilar hamda ahd-paymon tuzilgach, tashqariga chiqdilar onhazratning ko‘zi Said oqaga tushgach, humoyun xotirida ilgari undan ranjish bo‘lganligi tufayli darhol uni qatl qilishga farmon berdi, boshqalarga nisbatan shafqat ko‘rsatdi”.

M.S.K. shoir ham edi. N. tog‘asi haqida “M.N.”ning birinchi majlisida ma’lumot beradi va ijodidan namuna sifatida quyidagi tuyuqni keltiradi:

Ey muhiblar, yetsangiz gar yoza siz,
Gul adoqinda xumori yozasiz.
Gar men o‘lsam turbatimning toshig‘a,
Kushtayi bir sho‘x erur deb yozasiz.

N. M.S.K.ni “Yaxshi tab’i bor erdi. Turkchaga mayli ko‘proq erdi”, deb ta’riflaydi. Bundan N.ning onasi mansub bo‘lgan oilaning turkiy

adabiy an’analarini o‘zida saqlagan xonadon ekanligi ma’lum bo‘ladiki, bu, albatta, N.ning shakllanishi va adabiyotga kirib kelishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Абдураззоқ Самарқандий. Матлаъ ас-саъдайн ва мажмаъ ал-баҳрайн. 2-жилд. – Т., 2008.*

Q.E.

MIR SAYYID HASAN ABIVARDIY (XV asr) – shoir. “M.N.”ning forsiy tarjimalarida Mir Husayn Bovardiy, Sayyid Husayn Bovardiy shaklida uchraydi. N. ma’lumotiga ko‘ra, M.S.H-.A. Kichik mirzo xizmatida Ka’baga safarga chiqib, Iroqda ajralib qoladi va Rum, Misr, Halabga hamda yana boshqa ko‘p mamlakatlarga boradi, arab tilini mukammal o‘rganib, Makka va Madina ziyoratiga musharraf bo‘lib, Xurosonga qaytadi. Ketayotganda, N. deydi, uning aqli va qobiliyatida kamchilik bor edi, qaytganida biror odam ta’na-yu tashni’ qiladigan nuqsi qolmadi. N. yozishicha, shoirning quyidagi baytini:

Ey zi mehri orazet gardun g‘ulom,
Yusufero kardaand Ya’qub nom.

(ya’ni, Ey sening yuzing quyoshiga dunyo qurdir, Yusufga Ya’qub (deb) nom qo‘yibdilar) she’riyatdan xabardor odamlar ma’nosi yo‘q va vaznga tushmagan, deb bahs qilganlarida, yaxshiga yo‘yib Xuroson ahlini nodonga chiqaradi va bu baytni Iroqqa Sulton Ya’qub Mirzo (q)ga yuboradi. N. Mirning bunday ishlari son-sanoqsiz, ammo qobiliyatli bo‘lgani u-n zarari yo‘q, deb ta’kidlaydi. Uning bunday xatolarini tuzatishga umid bog‘laydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

S.G‘.

“MIR SAROYI” – N. Astrobodda hokim bo‘lgan davrda (1486–87) qurdirgan hashamatli saroy.

Bu saroy haqida Xiva xoni Ollohqulixonning (1825–1842) Xurosonga qilgan harbiy yurishlari to‘g‘risida yozilgan bir safarnomada shunday ma’lumot keltirilgan: “Mir saroyi otlig‘ mavzekim, Sulton Husayn mirzoning saltanati ayyomi va Mir Alisherning o‘zining Astrobod mamolikiga hokimligi hangomida bir saroyi dilkushoy va qasri farahafzoy bino qildurg‘on erkan hamul yerga nuzuli ijlol buyurdilar”.

Demak, asar muallifi Muhammad Nazar ibn Mullo Saidniyoz Xevaqiy xon yurishlarida u b-n birga bo‘lib, saroyni o‘z ko‘zi b-n ko‘rgan va go‘zal saroy haqida ishonchli ma’lumotni bitib qoldirgan.

Ad.: *Ҳоди Зариф. Фозиллар фазилати. – Т., 1969.*

Mah.M.

“MIRNI UQDING – HAQQA YETDING” nomli monografiya n.shunos Dilorom Salohiy tomonidan tayyorlangan bo‘lib, N. g‘azallari sharhidan iborat. Kitobga yozilgan so‘zboshida N. she’riyati zamiridagi mazmun-mohiyatni anglash natijasida o‘quvchi oladigan ma’naviy-ma’rifiy bilimlar haqida fikr-mulohaza yuritilgan. Sharhlash u-n, asosan, hamd va na’t, oshiqona g‘azallar tanlangan. Jumladan, “G‘.S.” devonidan 4, 5, 6, 7, 10, 373, 144, 183, 242, 364, 338; “N.N.”dan 638, 26, 43, 132; “B.B.”dan 715, 54, 215, 641, 598 raqamli g‘azallar, jami 20 ta g‘azal an’anaviy tartibda – g‘azal matni, lug‘at, vazni, nasriy bayoni va umumiy mazmun shaklida sharhlangan. Tahlillarda diniy-tasavvufiy mohiyatga urg‘u berilgan. Sharhlardan so‘ng berilgan “Navoiy she’riyatida badiiy mahorat masalalari” qismida N. g‘azallarining vazn xususiyatlari, shakl va mazmun uyg‘unligi yoritilgan. “Navoiy ijodida turkiy she’riyat taraqqiyoti masalalari” mavzusidagi bo‘limda N.ning turk tili va turkiy tilli ijodkorlarga bergan bahosi, shoir ta’rifidagi

“turkona” so‘zining izohlari; turkiy tilda bitilgan musammatlari badiiyati borasida tahliliy ma’lumotlar berilgan. N.ning turkiy she’riyatdagi mavzular olamini boyitgani, uslubi, badiiy mahorati, she’riyat rivojidagi o‘rni va hissasi olimaning ko‘p yillik kuzatishlaridan chiqarilgan umumlashmalar asosida xulosalangan. Monografiya N. lirikasini diniy, tasavvufiy tahlil qilish orqali shoirning tafakkur dunyosiga yo‘l ochishi, ma’rifatga yetaklashi b-n muhim ahamiyatga ega.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Salohiy Dilorom. Mirni uqding – Haqqa yetding. Alisher Navoiy g‘azallariga sharhlar. – T., 2021.*

O.T.

MIR HOJI SO‘G‘DIY (XV asr, Samarqand) – shoir. N. Samarqandda tahsil olganda u b-n tanishgan. Ahmad Hojibek, Mirzobek, Harimiy Qalandar kabi Samarqand adabiy muhiti namoyandalaridan. “M.N.”da keltirilgan ma’lumotga ko‘ra, ba’zida kutilmagan badiiy kashfiyotlar qilgan. Jumladan, N. uning bir turkiy baytini namuna sifatida keltirib, unda so‘z jozibasi va badiiyat jilvasi borligi, shu birgina ohorli va go‘zal bayti u-n Tangri uni o‘z rahmatiga olsa arzishini aytadi:

O‘xshatti qomatingg‘a sanavbarni bog‘bon,
Bechora bilmas emish alifdin tayog‘ni.

V.Abdullayev uni N. Samarqandda tahsil olgan davr shahar adabiy harakati namoyandalaridan hisoblaydi va N. safdoshlaridan, deydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Абдуллаев В. Сайланма. – Т., 1982.*

S.G‘.

MIR HUSAYN (XV–XVI asr – Mashhad) – shoir. N. “M.N.” tazkirasida ma’lumot berishicha, ilm tahsili u-n Hirotga kelib, uning “Ixlosiya” madrasasida joylashgan. N. M.H.ning ta’bi yaxshi ekanligini aytib, “Lutf” otiga yozgan muammosini keltiradi:

Shodam az on, ki yor novaki g‘am,
Tarfi dil figanda az pay ham.

Tarj.: Yor g‘am o‘qini dil tomonga paydarpay otganidan shodman.

Som Mirzo Safaviy “Tuhfayi Somiy” tazkirasida M.H. degan shaxs haqida xabar berar ekan, Mir Abdulkarimning kichik ukasi, Mir Abdulazimning o‘g‘li bo‘lib, bu xonadon sira ta’rifga muhtoj emasligini ta’kidlaydi. Surat va siyratda yetuk yigit bo‘lib, yoshi 20 dan oshmagan, deydi. Barcha fazilat va iste’dodlar majmuyi ekanligini ta’riflaydi va quyidagi matla’sini ijodidan namuna sifatida keltiradi:

Man oshiqi on ro‘yi chu moham, chi tavon kard?
Devonayi on zulfi siyoham, chi tavon kard?

Tarj.: Men u oy kabi go‘zal yuzning oshig‘iman, nima qilay? O‘sha qora zulfning devonasiman, nima qilay?

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011. Тазкирау “Тўҳфаи Сомий”. Теҳрон, 1347 (ҳ.-ш.).*

E.O.

MIR HUSAYN ALI JALOYIR (XV asr) – shoir, siyosiy arbob. Taxallusi “Tufayliy” (“M.N.” tarjimoni Faxriy yozishicha, “Latifiy”). Otasi Ali Jaloyir avval Abulqosim Bobur, so‘ng Yodgor mirzo xizmatida Amirlar amiri bo‘lgan. Ammo o‘zi juda kamtar va kamsuqum, yaxshi qobiliyatli yigit bo‘lgan. She’riyatda ko‘proq qasida yozishga moyil bo‘lib, qasidalarini barcha tan olgan. Husayn Boyqaroga qasidalar bag‘ishlagan. Husayn Boyqaro ham uni yaxshi tarbiyatlar qilgan, muhrdorlik va parvonachi (q.) lavozimlariga ko‘targan. U taxtga yaqinlardan sanalgan, yuksak mavqe egalariga o‘rinbo-

sarlik qila olgan. N.ning “M.N.”da yozishicha, unga saroy ahli hasad qilib, qandaydir bir nuqson u-n saroydan uzoqlashtirganlar. Bundan u g‘oyat aziyat chekkan. Shohona lutf va karam uni qo‘llashiga N. umid bildiradi. M.H.A.J.ning yalqovlik va beqarorlikdan bo‘lak aybi bo‘lmagan, deb ta’kidlaydi N.

“Boburnoma”da yozilishicha, M.H.A.J. nomi Hasan Ali Jaloyir sifatida mashhur bo‘lgan. 917/1511– 12-yy.da Bobur Samarqandni olganida H.J. uning huzuriga kelgan 5-6 yil Bobur qoshida bo‘lgan. Bobur sha’nida yaxshi qasidalar yozgan. Bobur “bebok” (hayiqmaydigan) va muktaf (bevosh) kishi edi. Hamisha nard o‘ynar edi, qimor qilur edi”, – deb yozadi.

M.H.A.J. N.ning ukasi Darvesh Alining xotini Ofoq begim Jaloyirga (q.) yo aka yoki uka bo‘lgan.

“Ammo qasida uslubi aning haqqidur. Andoqki, bu toifa ham musallam tutarlar. Sulton sohibqiron otig‘a g‘arro qasoyidi bor”, – deb e’tirof etadi uning bu boradagi iste’dodini N. ham “M.N.” tazkirasida. “Soqiynoma”sida esa madh uslubi e’tibordan chetda qolib, qasidanavislik orqaga ketgan edi. Sen sohirxayol, sehrli so‘z mahsuli bo‘lmish qasidalaring b-n bu janrga hayotbaxsh etib, Anvariy, Xoqoniy, Foryobiy, Isfahoniy kabi qasida ustalari ruhini go‘yoki tiriltirding, deb lutf etadi:

Madh uslubi edi beravnaq,
Bal chiqib erdi arodin mutlaq.

Har qasidaki, tuzatti raqaming,
Yo savodin raqam etti qalaming.

Bo‘ldi ma’ni yuzidin bir olam,
Ul savod anda savodi a’zam.

Shunga yarasha, Husayn Boyqaro ham yuksak lavozimlarga ko‘targan: u muhrdor, parvonachi, vazir o‘rinbosari sifatida faoliyat yuritgan. Lekin Navoiyning yozishicha, Sultonga shuncha yaqinligiga qaramay, bir aybi tufayli uning nazaridan qolgan. Quyidagi matla’ uning shu davrdagi ahvolini aks ettiradi, deydi u va ilohim aytgani kelsin, deb tilak bildiradi.

Bihamdillah, ki digar rah ba iqboli shahi odil,
Burun omad gulam az xor-u xor az pov-u po az gil.

Tarj.: Xudoga shukrlar bo‘lsinki, odil shoh inoyati bilan yana bir bor gulim tikandan, tikan oyog‘imdan, oyog‘im loydan xalos bo‘ldi.

O‘zi faqirtabiat, foniylikni kasb etgan, oddiy va xushta’b yigit bo‘lib, savdoyilik va haddan tashqari dangasalikdan bo‘lak aybi yo‘qdir, deydi yana shoir ilova qilib.

“Harbiy ishda ham mohir va jasur bo‘lishiga qaramay, she’riyatdagi iste’dodi hammasidan yuksak bo‘lib, malik ul-kalom va amir ushshuaro edi, – deb ta’riflaydi Davlatshoh ham. Yana obrazli yo‘sinda aytadiki: – Bahodirlik va pahlavonlik libosi uning qaddiga nihoyatda yarashiq edi”.

“Tig‘ining dami bir damda yer yuzini rangin qildi. Qalamining qudrati tufayli so‘zning ta’mi shirin bo‘ldi”, – deya uning sha’niga bayt ham bitadi:

Dami teg‘ash ba dame ro‘i zamin rangin kard,
Nayi kilkash ba hunar ta’mi suxan shirin kard.

Baytning birinchi misrasida uning harb sohasidagi mohirligi va jasurligini madh etsa, ikkinchisida so‘z san’atidagi salohiyati va mahoratini vasf qiladi.

Xondamir “Xulosat ul-axbor” asarida “Fahm-u farosatining tezligi, ta’bining xushligi bilan sifatlangan, yaxshi xulqi va odobi bilan mashhurdir. Ajoyib qasida yozib, unga rangin ma’nolarni kiritgan olijanob amir Alisher ko‘p mehribonligidan uni farzand deb atagan va ana shu oliy himmati orqasida devoni oliyga boshliq bo‘lib o‘ltirur”, deb yozadi.

Haydar Mirzo ham uning ijodiy salohiyatiga yuksak baho beradi: “Qasida bitishda mislsiz edi, iste’dodda u Salmon Sovajiy va Zaxir Kirmoniydan o‘zib ketdi. Uning “shikast” (“sindi”)

radifli qasidasi bor, ehtimol, hech bir shoir shu radif b-n bunday hajmdagi qasidani yozmagan bo‘lsa kerak.

Sommirzo ham Tufayliyning qasidanavislikdagi iste’dodi va mahoratini xos-u avom e’tirof etganligi haqida ma’lumot beradi. “Shikast” radifli mashhur qasidasidan ikki bayt namuna keltiradi:

Sarvi qadat jilva kard, qaddi sanavbar shikast,
La’li labat xanda kard, qimati gavhar shikast.
Hinduyi darboni o‘ cho‘bi siyosat ba qahr,
Az kafi xoqon kashid, bar sari qaysar shikast.

Tarj.: Sarv qadding o‘zini namoyon etdi-yu, sanavbarning qaddini xam qildi, la’l kabi labing tabassum qildi-yu, gavharning bahosini kasod qildi. Uning hind eshikog‘asi qahr bilan siyosat tayog‘ini xoqonning qo‘lidan tortib olib, qaysarning boshiga tushirdi.

Umrining oxirida Iroqqa ketib, Ismoil Safaviyning vaziri Najmi Soniy xizmatiga kiradi. Bu yerda hurmat va obro‘ topib, uning sha’niga ham qator qasidalar bitadi. Mavlono Umidiy Tehroniy degan qasidanavis b-n oralarida nizo chiqib, bir-birlarini hajv ham qilganlar. Umidiyga Tufayliyning soyasida qolib ketgani alam qilgan va hasad o‘tida kuyib, unga qarshi kurashgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Соқийнома. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Бобурнома. – Т., 2002; Хондамир. “Хулосат ул-ахбор”дан. (Б.Аҳмедов тарж.) // Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985; Давлатшоҳ Самарқандий. Тазкират уш-шуаро. – Хужанд, 2015; Сомирзои Сафавий. Туҳфаи Сомий). – Душанбе, 2018; Муҳаммад Ҳайдар Мирзо. Тарихи Рашидий. – Т., 2010; Асадов М. Соқийнома: тарих ва поэтика. – Т., 2020.*

S.G‘., M.A.

MIR HUSAYN MUAMMOIY (XV asr, Nishopur – Hirot) – N.ning zamondoshlaridan. Manbalarda uning nomi Amir Kamoliddin Husayn ibn Muhammad Husayn, Muhammad Husayn Nishopuriy, M.H.M. tarzida zikr etiladi. Asli nishopurlik bo‘lib, Hirotdagi “Ixlosiya” madrasasida tahsil olgan. Muammonavislikdagi mahorat haqida Zayniddin Vosifiyning “Badoye’ ul-vaqoye’” va Said Nafisiyning “Eronda forsiy tildagi nazm-u nasr tarixi” kitoblarida ma’lumot berilgan. Muammo janrining har qanday murakkabliklarini ham puxta o‘zlashtirganligi sababli o‘z davrining fozil kishilari orasida katta obro‘ qozongan. “M.N.”da M.H.M.ni ulug‘ mutafakkir quyidagicha tanishtiradi: “Mir Husayn Muammoiy − Nishopurdindur. Shahrda (Hirotda – M.A.) tahsil qildi. Oncha hamida axloq va pisandida atvori borkim, sharhidin qalam tili va qalamzan iligi ojizdur va valoyat osori holidin paydo va fano namudori zotidin huvaydodur... muammo fanining latofat va nozuklugin ul yerga yetkurdikim, andin o‘tmak mumkin ermas va hukm qilsa bo‘lurkim, bu yo‘lni band qildi”. Shundan so‘ng ijodidan namuna sifatida uning “Nosir” ismiga yozilgan bir muammosini keltiradi:

Shud ba xo‘bi ro‘yi on huri parivash oftob,
Kas nadid az xok-u bod-u ob-u otash oftob.

Tarj.: U huri parivashning yuzi go‘zallikda oftobga o‘xshaydi. Hech kim tuprog‘-u havo-yu o‘t-u suvdan, ya’ni 4 unsurdan bino bo‘lgan oftobni ko‘rgan emas.

Muammo sharhi: 4 unsur – tuproq, havo, o‘t va suvdan oftob ma’nosidagi “ayn”ni olib tashlasa, “Nosir” ismi qoladi.

Muammonavislikdagi mahorati Jomiy, N., Bobur va Mirzo Haydarlar tomonidan ham e’tirof etilgan. Jumladan, N.ning fikrlarini “Boburnoma” muallifi ham tasdiqlaydi: “Yana Mir Husayn Muammoiy edi. G‘olibo muammoni oncha hech kim aytg‘on emas. Hamisha avqoti muammo fikrig‘a masruf ekandur”.

Mirzo Haydar ham: “Amir Husayn Muammoiy muammogo‘ylikda mislsizdir. U muammoga bag‘ishlab ajoyib risola yaratgan” deb, risola-

sidan “Suhrob” ismiga yozilgan bir muammosini namuna sifatida keltiradi.

N. soqiynomasida esa unga keltirilgan ta’rif yuksak badiiylik kasb etib, o‘ziga xos muammo darajasiga ko‘tarilgan:

Bir shafi’idur-u ul pok sifot,
Kim muammoda chiqarmishdur ot.

M.H.M. muammo haqida muxtasar bir risola yozib, o‘zining muammolarini unga kiritgan. Risoladan ko‘plab yoshlar muammo aytish sirlarini o‘rganganlar. Ular ichida Zayniddin Vosifiy ham bor edi. U muammoga oid mashhur asarlaridan biriga aylanadi. Sodiq Rukniy Oshiq, Abduvahhob ibn Jamoliddin Hamadoniy kabi zamondoshlari unga sharh yozganlar.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 2002; Тарихи Рашидий. – Т., 2010; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Ж. 2. – Д., 1989.*

M.A.

MIRZAYEV Ibodulla Kamolovich (1946, Surxondaryo) – adabiyotshunos olim, tarjimon, f.f. d-ri, prof. Markaziy Osiyoda 1-bo‘lib “Lingvopoetika” ilmiy tadqiqot yo‘nalishiga asos solgan. Olim tilshunoslik, adabiyotshunoslik va she’rshunoslikning eng so‘nggi yutuqlarga asoslangan “Tahliliy o‘qish” nomli innovatsion darslik yaratgan. M.I.K. har qanday fanning nafaqat ichki, balki tashqi omillar b-n belgilanishini teran anglagani u-n fundamental xorijiy asarlarni 20 yildan buyon mahorat b-n tarjima qilib kelmoqda. Shu maqsadda u dastlab SamDUda ilmiy tarjima laboratoriyasiga asos soldi. U shu laboratoriya doirasida n.shunoslik ilmining asoschisi, FA muxbir a’zosi, prof. Y.E.Bertelsning “Navoiy va Jomiy” monografiyasi, “Navoiy va Attor” risolasini o‘zbek tiliga tarjima qilib, ustoz I.Haqqulov mas’ul muharrirligida chop ettirgan. Yirik sharqshunos olim Y.E. Bertelsning “Navoiy va Attor” monografiyasida Farididdin Attorning “Mantiq ut tayr” va N.ning “L.T.” asarlarining qiyosiy-tipologik tahlili berilgan. Olim mazkur asar F.Attorning “Mantiq uttayr” asarining tarjimasi emas, balki o‘ziga xos original asar ekanligini ko‘plab misollar yordamida asoslab bergan.

M.I.K.ning “Navoiy” monografiyasi Afg‘onistonda, Jumladan, “Alisher Navoiy hayoti va ijodining Rossiyada o‘rganilishi” nomli monografiyasi esa Belorussiyaning Minsk shahrida chop etildi. Shuningdek, u N.ning “M.L.” risolasini fransuz tiliga o‘girdi. Zero, olimning n.shunoslikka doir ishlari haqiqatda e’tirofga loyiq, chunki M.I.K. nafaqat N.ning bebaho adabiy merosini dunyoga tanitish borasida ulkan ishlarni amalga oshirgan, balki adabiyotshunoslik va tilshunoslikda ham N. asarlariga doir asosli ilmiy xulosalari b-n o‘ziga xos mavqega ega. “Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari va uni hozirgi o‘zbek tiliga tabdil qilish muammosi”, “Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni va yoshlar tarbiyasi masalasi”, “Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asaridagi yuzta fe’lning mazmuniy guruhlari” kabi 20 dan ortiq ilmiy maqolalari b-n n.shunoslik rivojiga hissa qo‘shib kelmoqda.

M.I.K. 2021-y.da N. tavalludining 580 yilligi munosabati b-n “Alisher Navoiy” xalqaro elektron jurnaliga asos solgan bo‘lib, hozirda bu va “Til. Ta’lim. Tarjima” jurnallari uning bosh muharrirligida faoliyat ko‘rsatmoqda.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Бертельс Е.Э. Навоий ва Аттор. Монография. Рус тилидан Ибодулла Мирзаев тарж. – Т., 2005; Бертельс Е.Э. “Навоий ва Шарқ адабиёти”*

мақоласи // Алишер Навоий ижодий мероси-нинг умумбашарият маънавий-маърифий тараққиётидаги ўрни мавзусидаги II анъанавий халқаро илмий-амалий конференция. Навоий. 2018. 6-7-февраль; Мирзаев И. (2020). Алишер Навоийнинг "Муҳокамат ул-луғатайн" асаридаги юзта феълнинг мазмуний гуруҳлари. Filologiya ufqlari jurnali, 1. https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/hp/article/view/319.;

I.E., S.O'.

MIRZOYEV Abdulg'ani Muhamedovich (1908, Qashqadaryo – 1976, Dushanbe) – tojik sharqshunosi, f.f. d-ri (1957), prof. (1960), Tojikiston FA akad. (1957) Tojikiston (1959) va O'zbekiston (1968)da xizmat ko'rsatgan fan arbobi, Leningrad Davlat universitetining Sharq fakultetini bitirgan (1939). Shevchenko nomidagi Dushanbe pedagogika institutida katta o'qituvchi (1939–1942), Tojikiston FA Tarix, til va adabiyot ilmiy-tekshirish institutida sektor mudiri (1945–46, 1951–58), shu institut direktori (1947–51). 1958 y.dan Toj.FA Sharq qo'lyozmalari bo'limi va Sharqshunoslik instituti direktori. Binoiyning hayoti va ijodi mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

M.A.M.ning dastlabki ilmiy ishlari tojik tili tarixi va sintaksisiga bag'ishlangan.

M.A.M.ning ilmiy ishlari XVI–XIX asrlar tojik adabiyoti masalalari (Sayido, Mulham Buxoriy, Binoiy, Sayfi Buxoriy, Malehoi Samarqandiy, Ahmad Donish); Rudakiy ijodiyoti, adabiy aloqalar tarixi (XV asr tojik-o'zbek, XVI–XVII asrlarda Eron va Movarounnahr, XVI–XVII asrlarda Movarounnahr va Hind-Pokiston adabiy aloqalari) kabi masalalarga bag'ishlangan.

M.A.M.ning adabiy aloqalarga bag'ishlangan ilmiy ishlari ichida N.ning fors-tojik adabiyotiga munosabati mavzusi asosiy o'rin tutadi.

Uning "Binoiy" (1957) monografiyasida N. b-n Binoiy munosabatlari maxsus bobda tahlil qilingan. Muallif N.ga bag'ishlangan ayrim badiiy asarlarda (m-n, "Navoiy romani") har ikki ijodkor o'rtasidagi ayrim murakkab holatlar ularning xarakterlari b-n aloqador shaxsiy munosabat ekanligi va bunday hodisalarni milliy masala doirasiga ko'tarish tarixiy haqiqatga zid ekanligini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

M.A.M.ning shu masalaga doir ikkinchi asari "Foniy va Hofiz" (tojik tilida, 1966) nomli risola hisoblanadi. Risola katta so'zboshi b-n boshlanib, Hofizning 30 ta g'azali hamda Foniyning 30 ta javob (tatabbu') g'azalini o'z ichiga oladi. Kirish maqolada Foniyning Hofiz an'analariga ijodiy munosabati masalasi har ikki ijodkor mansub bo'lgan tarixiy, madaniy vaziyat, forsiy g'azalchilik tarixida Hofizning roli kabi masalalar chuqur tahlil qilingan.

"Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy" (1968, tojik tilida) nomli risola "ikki buyuk so'z ustasining adabiy aloqalari"ni yoritishga bag'ishlangan. N. va Jomiy o'rtasidagi o'zaro munosabatning barcha qirralari (shaxsiy va ijodiy) aniq dalillar asosida tahlil qilinadi va ularning shaxsiy munosabatlari ham ijodiy maqsadlarga bo'ysundirilgan edi, degan xulosa chiqariladi.

Risoladagi muhim xulosalar sifatida yana N. turkiy-o'zbek adabiy tilining asoschisi ekanligini birinchi bo'lib Jomiy e'tirof etganligi hamda Navoiy-Foniy fors-tojik adabiyoti tarixida ham o'ziga munosib mavqega ega deb qat'iy xulosa chiqarilganligini ko'rsatish mumkin. Risolaga Jomiyning "Lujjat ul-asror" qasida (24 bayt)si b-n o'nta g'azali va Foniyning unga javob sifatidagi "Tuhfat ul-afkor" qasidasi b-n o'nta g'azali matni ilova qilingan.

U O'zR FA Til va adabiyot institutida har yili o'tkaziladigan an'anaviy n.shunoslik anjumanlarining doimiy ishtirokchisi edi. "Foniy va Hofiz" nomli salmoqli maqolasi "Navoiy va adabiy ta'sir masalalari" to'plamida bosilgan (1968). Maqolada olim N.ning Hofizga tatabbu'larini qiyosiy o'rganish asnosida tatabbu'navisning mahorati, o'ziga xosligi, haqiqiyligi masalalariga e'tibor qaratib, ulug' o'zbek shoirining buyuk salafiga munosib javobiyalar aytish b-n o'zining forsiy tilda ijod qilish salohiyatini ham ko'rsatgani va haqli ravishda forsiy adabiyotning ham zabardast

namoyandalaridan biriga aylanganini asoslab ko‘rsatadi. Uning xulosasiga ko‘ra, N. “javobiya-nazira she’rlar yozish bilan, albatta, o‘zining adabiy mavqeyini fors-tojik g‘azalchiligida ham belgilashni istar edi. Shu nuqtayi nazardan u, nazirachilik talablariga muvofiq, eng buyuk g‘azal ustasining eng yaxshi, mashhur g‘azallarini olib, uning vazni, qofiya va mavzusida javob yozishi lozim edi. Shunday buyuk g‘azal ustasi... Sheroz xo‘jasi edi. N. o‘zining javob tariqasidagi g‘azallarida Hofiz g‘azallarining ma’nolarini qanday o‘rinlarda takomillashtiradi, qaysi masalalar tasvirida N. javoblari Hofiz bilan bir darajada turadi, u qaysi ijtimoiy-axloqiy va adabiy sohalarni izohlash va bayon etishda Hofizdan o‘zib ketgan kabi muammolar... yaqin kelajakda atroflicha tadqiqot doirasi bo‘lib qolishi kerak”. Shundan keyin u ayni fikrlarining isboti sifatida maqolada N.ning tatabbu’ tariqasidagi 2 g‘azalini Hofiz g‘azali b-n qiyoslaydi.

1. Hofiz: “Voizon k-in jilva dar mehrobu minbar miyekunand...”

Foniy: “Voizon to chand man’i jomu sog‘ar mekunand...”

2. Hofiz: “Biyo to gul barafshonemu may dar sog‘ar andozem...”

Foniy: “Bahoron gar ba gulshan tarhi jomu sog‘ar andozem...”

Bu 2 g‘azal tahlili asosida shunday xulosa chiqaradi: “Alisher Navoiyning mana shu ikkita javobiya g‘azalida yangi ma’no va nozik badiiy tasvir ma’lum darajada ko‘p va mahorat bilan ishlatilgan bo‘lib, bularni XV asrning 2-yarmidagi butunlay mustaqil va 1-darajali fors-tojik she’rlariga aylantirgan. Bu holat “Foniy devoni”da tasodifiy bir hodisa emas. N.ning fors-tojik she’riyatida ham ustozligi va yuksak mahorat ko‘rsatganligini uning javobiya yoki mustaqil g‘azallarining har birida, ma’lum darajada, aniq ko‘rish mumkin. N. asarlarining shu qismi mutolaasidan shunday tasavvur tug‘iladiki, o‘zbek adabiyotining asoschisi o‘zining fors-tojik she’riyati tarixidagi o‘rnini, haqiqatan ham, juda yaxshi belgilagan”.

M.A.M. Jomiyning “Yusuf va Zulayho” asarida Alisher Navoiy obrazi” (“O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali, 197 son) nomli maqolasida ham N. va Jomiy munosabatlari masalasining muhim jihatini yoritgan.

M.A.M. asarlari Myunxen, Eron, Pokistonda nashr etilgan. Ayrim asarlari chet tiliga tarjima qilingan.

Ad.: *Сайидо ва мақоми ӯ дар таърихи адабиёти тожик. – Д., 1947; Биноий. – Д., 1957; Абу Абдулло Рӯдакий. – Д., 1958; Сездаҳ мақола. – Д., 1977; Фоний ва Навоий Алишер Навоий ва адабий таъсир масалалари. – Т., 1968; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 2. – Душанбе, 1989.*

Y.I.

MIRZO ULUG‘BEK MADRASASI – Temuriy hukmdor Mirzo Ulug‘bek tomonidan bir vaqtning o‘zida Samarqand (1417–1420), Buxoro (1417), G‘ijduvon (1420)da qurdirgan madrasalar, ya’ni o‘sha davrning oliy o‘quv yurtlari. Tarixiy va adabiy manbalarda mazkur madrasalarning qurilishi, qizg‘in faoliyati, tolib-u mudarrislari va Markaziy Osiyo ilm-fan rivojida tutgan o‘rni xususida muhim ma’lumotlar yozilgan.

O‘rganishimizga ko‘ra, ko‘p ma’lumotlar Samarqand madrasasi to‘g‘risida bitilgan ekan. N.da ham Ulug‘bek madrasasi deb Samarqand madrasasi nazarda tutilgan. Adib Zayniddin Vosifiyning “Badoye ul-vaqoye” kitobida yozishicha, Samarqand madrasasining tantanali ochilishida 90 nafar

olim qatnashgan. Ulug‘bek Mirzo unga birinchi mudarris etib Mavlono Muhammad Xavofiyni tayinlagan, buni Xavofiyning o‘zi so‘ragan ekan. Olim madrasa ochilishida mudarris sifatida o‘zining ilk ilmiy ma’ruzasini o‘qiydi va keyinroq Qozizoda Rumiy, Mirzo Ulug‘bek, Jamshid Koshiy, Ali Qushchilar ma’ruzalar o‘qishgan.

N. “M.N.”ning oltinchi majlisida “yakqalama qozi” nomi b-n mashhur bo‘lgan Xoja Xurdga bag‘ishlab bitgan “Xoja Xurd” nomli fiqrada aynan Samarqandda barpo etilgan Ulug‘bek madrasasi haqida muhim xabar bitgan: Chunonchi: “Xoja Xurd – Samarqand taxtining yakqalama qozisi va Ulug‘bek Mirzo madrasasining mudarrisidur.”

Ba’zi ma’lumotlarga ko‘ra, Miro Ulug‘bek madrasa devoriga dunyo xaritasining tasvirini chizdirgan ekan.

Abdurahmon Jomiy ham Ulug‘bekning Samarqand madrasasida tahsil olgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Зайниддин Восифий. Бадойе ул вақоеъ. – Т., 1979; Аҳмедов А. Улуғбек Муҳаммад Тарағай. – Т., 2011.*

B.R.

MIRALI HIRAVIY (1476/78, Hirot – 1544/45, Buxoro) – xattot. Hirot sayyidlaridan bo‘lib, Zulkamolayn laqabli Mir Boqirning o‘g‘li. Tug‘ilgan shahrida kamol kasb etib, xushnavislikda katta shuhrat qozongan. 1490-yy. Jomiy xizmatida bo‘lib, uning madrasasida tahsil olgan. Husnixatni Sultonali Mashhadiyning shogirdlaridan biri – Zayniddin Mahmud huzurida o‘rganadi. “Hunarmandlar hayoti” asarining muallifi Do‘stmuhammadning ma’lumot berishicha, uning nom-u laqabi aslida Mirali Kamoliddin Mirjon bo‘lib, Ali, Aliyul kotib, deb ham imzo chekkan. “Sultoniy”, “Kotib ul-sultoniy” degan faxriy unvonlari bo‘lgan. Ko‘p yillar Hirotda kitobat ishi b-n mashg‘ul edi. Uning rahbarligida ko‘plab kotib-u xushnavislar o‘tmish va zamondosh olim-u adiblarning asarlarini to‘plash va ko‘chirish b-n shug‘ullanganlar. Abdurahmon Jomiy va N. b-n yaqin do‘stona munosabatda edi. 1529-y.da Ubaydulloxon Hirotni zabt etganida, bir guruh ilm-u adab, hunar ahlini ham xonlik poytaxti Buxoroga olib keladiki, ular orasida M.H. ham bor edi. Buxoroda u Ubaydulloxonning o‘g‘li Abdulazizxonga muallim etib tayinlanadi. Fathobod mavzesida yashab, Fathobodiy nisbasini oladi. Umrining oxirigacha Buxoroda qoladi. 70 yoshida vafot etgan. Qabri Sayfiddin Boharziy mozori yonida.

M.H. olti qalamli xatni go‘zal bitar edi. Nasta’liqni chiroyli yozishda esa o‘z davrining yagonasi edi. Hasanxoja Nisoriy u sayidlikda ham mashhur bo‘lsa-da, xat mulkida kotiblar shohi edi, deb yozadi. “Nasta’liq xatida zamon kotiblari ishini yo‘qqa chiqarib, midodu qalam ko‘magida xushnavislikning arz-dodiga yetardi”. Uning qo‘li b-n ko‘chirilgan qator kitoblar bizgacha yetib kelgan. Sa’diyning “Bo‘ston”, Xojuning “Gul va Navro‘z”, Jomiyning “Sabhat ul-abror” asarlari shular jumlasidandir. Muhammad Boqir (o‘g‘li), Husayn Buxoriy, Ma’sum Buxoriy, Mirak Buxoriy, Muhammad Samarqandiy, Sulton Muhammad Hiraviy kabi ko‘plab shogirdlari xattotlikda shuhrat qozonganlar. M.H. ta’bi nazmdan ham xoli bo‘lmay, undan bir qator she’rlar qolgan. Xususan, ta’rixni yaxshi aytgan. Som Mirzo uning Mahdiy ismiga aytgan ta’rix qit’asini keltiradi. Bobur nomiga yaxshi izhori muzmar ham yozgan. Hasanxoja Nisoriyning naql qilishicha, Mirzobek devon o‘limidan keyin uni tush ko‘rib, vafoti ta’rixini so‘rasa, “Mirali favt namuda” (“Mirali vafot etdi”) degan va Mirzobek bu ta’rixni nazmga solgan.

M.H. 1518–1522-yy.da xattotlik san’ati sirlari haqida muqaddima va 5 bobdan iborat “Midod ul-xat” nomli risola ham yozgan. Unda xat, xat navlari, yozish qoidalari, yozuv vositalarini tayyorlash, ustod xushnavislar haqida ma’lumot beriladi. Uni yozishda muallif soha bo‘yicha o‘zigacha yaratilgan ko‘plab asarlar, jumladan, Sultonali Mashhadiyning “Sirot ul-xat” risolasi-

dan foydalangan. Tabiiyki, o‘zining ko‘p yillik xattotlik tajribasi asosida ularda bayon qilingan fikrlarni rivojlantirib, yangi qarashlar b-n boyitgan. Asar ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Uning bir nusxasi Sankt-Petrburgda saqlanadi.

Ad.: *Тазкираи Тўҳфаи Сомий. Теҳрон, 1347 (ҳ.-ш.); Ҳасанхожа Нисорий. Музаккири аҳбоб. – Т., 1993; 324 (Изоҳлар қисми); Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 2. – Душанбе, 1989.*

E.O.

MIRAK ZA’FARON (Mirak Za’faroniy) – N.ning zamondoshlaridan. XV asrning oxirgi choragida Xurosonning obro‘li yigitlaridan hisoblangan. Uning biron-bir fazilati yoki ijodkorligi, biron sohada nom chiqargani ma’lum emas. Lekin o‘sha davrning ko‘zga ko‘ringan kishilari qatorida katta davralarda, majlislarda qatnashib yurgani ma’lum. Jumladan, N. ishtirokida o‘tgan yig‘inlar, ziyofatlarga ham taklif qilingani manbalarda qayd etilgan.

Hirotdan yarim farsah uzoqlikda joylashgan Purza degan joyda Majdiddin bir chorbog‘ yaratgan va o‘sha yerda N. sharafiga ziyofat uyushtirgan. Zayniddin Vosifiy ana shu ziyofatda qatnashganlarning to‘liq ro‘yxatini keltirib, shoirlarni, sozandalarni, obro‘li mehmonlarni nomma-nom tilga olgan. Shular qatorida “Xurosonning obro‘li yigitlari” deb boshlanuvchi ro‘yxatda M.Z. birinchi o‘rinda qayd etilgan.

N. yoki Sulton Husayn huzurida o‘tkazilgan majlislarda ishtirok etuvchilarning ro‘yxati, albatta, N. yoki sulton tomonidan tuzilgan. Binobarin, u yoki bu shaxsning mazkur yig‘inlarida hozir bo‘lish u-n N. va Sulton Husayn mirzoning munosabatini ko‘rsatadi.

Jahonaro bog‘ida o‘tgan bir ziyofat haqida ma’lumot berar ekan, Vosifiy qatnashchilar ro‘yxatini Sulton Husaynning o‘zi yozib berganini aytadi: “Jahonaro chorbog‘idagi xushmanzara qasrda ziyofat muqarrar qilindi. Mirzo majlisda keladiganlarning nomini yozib berdilar”. N. nomi b-n boshlangan ushbu ro‘yxatda ham Mirak Za’faron nomi bor.

Ad.: *Зайниддин Восифий. Бадоеъ ул-вақоеъ. – Т., 1978.*

Q.E.

MIRAK NAQQOSH (taxallusi; asl ismi: Amir Ruhulloh) (t.y.n. – 1507) – xattot, musavvir. Hirotda o‘sib-ulg‘aygan. Yoshligida kamonsozlik b-n shug‘ullangan. U “kurash tushuvchi polvon va asbob-uskuna yasaydigan temirchi ham edi” (Mirzo Haydar).

Binolarning peshtoqiga katibalar ham bitgan. Keyinchalik zamonasining mashhur naqqoshi Mavlono Valiullohdan xattotlik va zarhal berish sirlarini o‘rganadi. Tasviriy san’atga qiziqib, bu sohaning yagonasiga aylanadi. Sayyid Mirak, Xoja Mirak nomlari b-n ham mashhur bo‘lgan. Chunki u Som Mirzoning ma’lumot berishicha, asli Isfahon sayyidlaridan bo‘lgan.

M.N. tengsiz musavvir Kamoliddin Behzodning ustozi hisoblanadi. Mirzo Haydarning yozishicha, “Uning asl tarhlari Behzodnikidan pishiqroqdir. Tarhni jonlantirish sifati va rasmlar miqdoriga ko‘ra u Behzodcha emas. Lekin u rasm chizishda Behzod kabi hujra, dastgoh, qog‘ozga bog‘lanib qolmas, balki aksari tashqarida, ochiq havoda, safarlarda, Husayn Mirzoning hovlisida, duch kelgan joyda rasmlarni qoyilmaqom chizaverar edi”.

Avval N., keyin Husayn Boyqaro kutubxonasida kitobdorlik qilgan. Xondamir “Xulosat ul-axbor” asarining N. kutubxonasida faoliyat ko‘rsatgan kotiblarga bag‘ishlangan faslida ma’lumot berishicha, M.N. “kitob sahifalariga zar berish, ularga surat solish hamda kitobat qilish fani sohasidagi mahorati bilan tengi yo‘qdir, balki husnixati bilan peshqadam kitobat qiluvchilarni ortda qoldiradi. Daryo himmatlik Amirning (N.ning) iltifoti va marhamati bilan martabasi osmon avjiga ko‘tarildi”.

M.N. amallari Hirot san’ati va Husayn Boyqaro kutubxonasining eng go‘zal namunalari va

shoh asarlari hisoblangan. Hirot jome' masjidi va boshqa hashamatli binolarga betakror katibalar bitgan. Nizomiy "Xamsa"siga ishlagan miniatyuralari bizgacha yetib kelgan bo'lib, Britaniya muzeyida saqlanadi.

M.N.ning yaxshigina ta'bi nazmi ham bo'lib, jumladan, Jomiyning quyidagi matla'siga javob aytgan:

Du hafta shud, ki nadidam mahi duhaftayi xudro,
Kujo ravam, ba ki go'yam g'ami nuhuftayi xudro.

Tarj.: Ikki hafta bo'ldiki, ikki haftalik, ya'ni o'n to'rt kunlik oyimni ko'rmadim. Qayoqqa boray, bu pinhon g'amimni kimga aytay.

Ba bog' raftam-u didam guli shukuftayi xudro,
Shunidam az guli bulbul g'ami nuhuftayi xudro.

Tarj.: Bog'ga bordim-u ochilgan gulimni ko'rdim, gul bilan bulbuldan pinhon g'amimni eshitdim.

Ad.: *Тазкираи Тўҳфаи Сомий. Теҳрон, 1347 (ҳ.-ш.); Тарихи Рашидий. – Т., 2010; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 2. – Душанбе, 1989.*

E.O.

MIRZO ABULXAYR – Temuriy mirzolardan. Manbalarda u haqida, deyarli, ma'lumotlar yo'q. Faqat "Habib us-siyar" asarida Xondamir uning Hirotda Sulton Husaynga qarshi isyon ko'targani haqida bir necha jumlada xabar beradi va isyon N. tomonidan bostirilganini qayd etadi. Buning sababi shundaki, Husayn Boyqaro o'sha paytda Hirotda bo'lmagan. U Balx viloyatiga, u yerda isyon ko'targan Ahmad Mushtoqqa qarshi qo'shin tortib ketgan edi. N. ham bu yurishda va harbiy harakatlarda ishtirok etgan. So'ngra Husayn Boyqaro uni lashkarni oziq-ovqat va g'alla b-n ta'minlashni tashkil etish u-n Hirotga yuborgan. Bu yerga kelib, Sultonning farmonini bajarayotgan N. Mirzo Abulxayr isyoni haqida eshitgach, uni bartaraf qilishga kirishgan. Mirzo Abulxayr qo'lga tushirilgan va N. uni Ixtiyoriddin qal'asiga qamab qo'ygan. Uning keyingi taqdiri ma'lum emas. Bu voqea 1472-y.da bo'lib o'tgan.

Ad.: *Хондамир. Ҳабиб ус-сияр. – Т., 2013; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985.*

Q.E.

MIRZO BOYQARO (vafoti, 1487) − davlat arbobi. Husayn Boyqaroning akasi. Uning navkari ham bo'lgan. Husayn Boyqaro taxtga o'tirgach, Balx viloyatiga hokim qilib tayinlangan. Bir necha yil Balxni idora qilgan. Saroy ishlariga aralashmas edi. Uch o'g'li bo'lgan: Sulton Muhammad mirzo, Sulton Vays mirzo va Sulton Iskandar mirzo.

N. "M.N."da uni "shikastanafsliq va kichik ko'ngulluk, tavozu' va ta'zimliq kishi erdi va haqshunoslig'i a'lo martabada erdi", deb ta'riflaydi va nazm ne'matidan ham bebahra emas edi, deb bir matla'sini keltiradi:

Zihi tajalliyi husni tu dar jahon paydo,
V-az in tajalliyi o' gashta joni mo shaydo.

Tarj.: Go'zal husning jilvasi jahonni to'ldirdi va uning bu jilvasidan bizning jonimiz shaydo bo'ldi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 2002.*

M.A.



MIRZO Kenjabek (Taxallusi; to'liq ismi: Kenjaboyev Mirza To'ychiyevich (1956, Surxondaryo) – shoir, tarjimon, adabiyotshunos. Sariosiyo (hozirgi Uzun) tumani ko'hna Ashurjiylon (hozirgi Mehnat) qishlog'ida

tug‘ilgan. O‘rta maktab tahsilidan so‘ng 1974–1979-yy.da Toshkent DU (hozirgi O‘zMU)ning jurnalistika fakultetida, 1999–2001-yy.da Imom Buxoriy nomidagi Islom institutida ta’lim olgan. 1982-y.dan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi. “Yosh gvardiya” nashriyoti, “Mushtum” jurnali, G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi, A.Qahhor uy-muzeyi, Prezident devonida xizmat qilgan. Hozir O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida Islom merosini saqlash bo‘limi boshlig‘i.

“Maktublarim” (1982), “Quyoshga qaragan uy” (1983), “Munojot” (1986), “Sharq tili” (1988), “Bahorim yellari” (1999), “Xushxabar” (2018), “Hayot sadolari” (2022) kabi she’riy to‘plamlar muallifi.

M.K. ilm va ijodni, tarjima va publisistikani o‘zaro omuxta holda olib borayotgan serqirra va sermahsul iste’dodlar sirasiga kiradi. Jumladan, uning “Termiz tazkirasi” (2001), “Buyuk Termiziylar” (2017), “Hazrati Qusam ibn Abbos – Shohi Zinda” (2017), “Bobur Mirzo asarlarida arabiy matnlar” (2018), “Murshidi komil hikmatlari” (2004) singari tarixiy-ma’rifiy, tasavvufiy va tazkira va risolalari nashr etilgan. “Dunyoning murshidi”: Hazrati Xoja Ubaydulloh Ahrorning “Risolayi Volidiya” asari Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga mansub nazmiy tarjimasining qisqa sharhi (2004), “Risolayi volidiya nazmiy tarjimasi va sharhi” (2019), “Oshiq Mashrab va tasavvuf olami” (2019), “Yoshlarga dil so‘zlarim” (Yosh ijodkorlarga samimiy tavsiyalar) (2021) kabi adabiy-irfoniy kitoblari chiqqan.

Mohir tarjimon sifatida arab, fors, turk, rus, turkman tillaridan jahon adabiyotining qator durdonalarini o‘zbek tiliga mahorat b-n tarjima qilgan: A.S.Pushkinning “Yevgeniy Onegin” she’riy romanini (1988), Farididdin Attorning “Tazkirat ul-avliyo” asari (1997) tazkirasini, Maxtumquli “Saylanma”si (2004), “Oshiqlar Haq ishqinda” (2019) she’riy to‘plamini, J.Oldrijning “G‘aroyib mo‘g‘ul oti” qissasini (hammualliflikda, 2012), Sirojiddin O‘shiyning “Omoliy” manzumasini (1999), Zayniddin Vosifiyning “Toshkent ta’rifida masnaviy”sini, Yunus Emroning “O‘lmas ko‘ngul” nazmiy majuasini (2020), shuningdek, Hofiz Sheroziy, Sa’diy Sheroziy, Amir Xusrav Dehlaviy, Mavlaviy Jununiy g‘azallari. I.V.Gyote, N.Gilyen, G.Emin, O‘.Sulaymon she’rlaridan namunalar tarjima qilgan. U ko‘plab ilmiy-ma’rifiy asarlar va hadis kitoblarini ham tarjima qilib, o‘zbek o‘quvchilarining ma’naviy olamini boyitishga munosib hissa qo‘shib kelyapti. Abu Iso Muhammad at-Termiziyning “Sunani Termiziy” (“Al-jomi’ as-sahih”) hadislar to‘plami (1–2-jildlar – 1999, 2012, 2013, 2017), “Ash-Shamoili al-Muhammadiyya” (2015; 2017), Shayx Mavlono Ahmad Ziyouddin Kumushxonaviyning “Jomi’ ul-mutun” (2000), Abul-Futuh Shayx Ahmad G‘azzoliyning “Bahrul mahabba” (“Muhabbat dengizi”) (2019), Mahmud As’ad Jo‘shonning “Haqiqiy sevgi” (1999), “Tasavvuf va go‘zallik”, (2004) kitoblari shular jumlasidandir.

U Sharq mumtoz so‘z san’ati va tasavvuf falsafasining bilimdoni sifatida qator ilmiy maqola va sharhlar ham yozib kelyapti. N. haqidagi “Asl vatan qayg‘usi”, “Navoiy nazmida hadis va hikmat”, “Qudrat va san’at sohibiga iltijo”, “Poklik va muhabbat tarannumi”, “Jon va jonon sirlari”, “Haq aylasa adolat”, “Ma’no olamidan olingan g‘azal” turkum maqolalari shular jumlasidandir.

M.K. she’riyatida ham N. ta’sirini ko‘ramiz. U N.ga bag‘ishlab she’rlar yozadi (“Navoiy bekati”), qator she’rlarida buyuk salafini tilga oladi (“Geografiya darslarida”, “Surur”, “Xayrli salom”, “Qora sevinch”, “Ijara uy”, “O‘zbek tili”, “O‘zbeklar”, “O‘zbekning”), uni ta’rif-tavsif etadi; bayt-u misralarini she’rlariga epigraf qilib oladi (“Yukinuv”, “Yana xalq hasrati”), tazmin san’ati vositasida (“Sharq tili”, “Tazmin”) qo‘llaydi. Jumladan, Imom Buxoriyga bag‘ishlangan she’rida shunday satrlarni o‘qiymiz:

Hazrat Navoiy ham g‘ami din qilmish,
Qirq hadis nazm etib, “Arb’ain” qilmish,

Hirot ichra qalbin sarzamin qilmish,
Imom Buxoriyning ziyoratida.

O‘zbek tilining davlat tili maqomini olishi munosabati b-n yozilgan “Qora sevinch” she’rida esa nihoyat endi dunyoga N. ko‘zlari b-n mag‘rur boqa olishidan iftixor tuyg‘ularini tuyadi.

“Tazmin” nomli she’rida N.:

Gulshaningdin yeldek, ey ra’no nihol,
Men yomon bordim, vale sen yaxshi qol.

baytini tazmin san’ati vositasida she’ri tarkibiga kiritib, undan naqarot sifatida foydalanadi:

Menga anduh manbayisan garchi san,
Sen – hayot muhrin samoviy naqshisan.

Chorasiz dilning halovatbaxshisan,
Men necha bo‘lsam yomon, sen yaxshisan! –

Gulshaningdan yeldek, ey ra’no nihol,
Men Yomon ketdim, vale sen Yaxshi qol.

“Ko‘kragimdur subhning pirohanidin chokrok”, “Javr o‘qin xoki tanimg‘a urma ko‘p” misralari b-n boshlanadigan g‘azallariga taxmis bog‘laydi. Bu muxammaslarda shoirning tasavvuf she’riyatining istiloh-timsollari va obrazlar olamidan yaxshi xabar bo‘lgani qo‘l kelgan. M-n:

Bo‘lsa ko‘ngil pok omonatlar uchun
taxti amin,
G‘am uchun shundoq musaffo tutsa
oshiq olamin,
Bas, ilohiy ishq uchun lozim
nechog‘ pokroq zamin,
Layli andin qo‘ydi Majnun ko‘nglida
raxti g‘amin –
Kim, yo‘q erdi manzil ul vodiyda
ondin pokrok.

N. haqidagi maqolalari, shoir g‘azallariga yozgan sharhlari, bog‘lagan taxmislari, u haqdagi band-u misralari, fikr-u qarashlari M.K. ijodida buyuk shoir katta o‘rin tutishini ko‘rsatadi.

Ad.: *Кенжабек М. Мактубларим. – Т., 1982; Кенжабек М. Муножот. – Т., 1986; Кенжабек М. Баҳорим еллари. – Т., 1999; Кенжабек М. Хушхабар. – Т., 2018; Кенжабек М. Ҳаёт садолари. – Т., 2022; Кенжабек М. Буюк Термизийлар. – Т., 2017.*

Q.E., S.R., E.O.

MIRZOBEK (t.y.n. – 1490–1491, Samarqand) shoir. N. “M.N.” yozishicha, “insoniyat va xush axloqlikda Xuroson va Samarqand mulkida yagona” bo‘lgan bu shoir o‘zining iqtidori, zehni b-n ana shu ikki mamlakat ijodkor yoshlari orasida “saromadi zamona” (ya’ni zamona ilg‘orlaridan) bo‘lgan.

N. M.ning

Ko‘zung ne balo qaro bo‘lubtur
Kim, jonga qaro balo bo‘lubtur.

matla’li “zul qofiyatayn” (q.) – ikki qofiyali bo‘lib, qofiyalari “tardi aks” (q.) san’atida (so‘zlarning o‘rin almashtirib takrorlanishi) yozilganini maqtaydi. N. ta’kidlashicha, M.ning bu xil baytlari ko‘p ekan, lekin u o‘z she’rlarini bir yerda to‘plab, tartibga solmas ekan. N. M.ning yuqoridagi matla’ni tugallab, quyidagicha g‘azal holiga keltirgan va M. xotirasi u-n o‘z devoniga kiritgan.

Ko‘zung ne balo qaro bo‘lubdur –
Kim, jong‘a qaro balo bo‘lubdur.

Majmuyi davoni dard qilding,
Dardingki, manga davo bo‘lubdur.

Ishq ichra aning fidosi yuz jon,
Har jonki, sanga fido bo‘lubdur.

Begona bo‘lubdur oshinodin,
Begonaga oshino bo‘lubdur.

To qildi yuzung havosi jonim,
Yuz sori anga havo bo‘lubdur.

Boqiy topar ulki bo‘ldi foniy,
Rahravga fano baqo bo‘lubdur.

To tuzdi Navoiy oyati ishq,
Ishq ahli aro navo bo‘lubdur.

N. ham tardi aks san’atiga to‘la rioya qilgan va matla’dagi ravonlik, musiqiylikni saqlagan holda mazmundor g‘azal yaratgan.

M. N.ning katta taassuflar b-n yozishicha, yosh ekanida dunyodan o‘tgan: “Hayf va yuz hayfki, darig‘ va yuz ming darig‘kim, hayot chashmasidin serob bo‘lmadi va umri naxli mevasidin bar yemadi”. Xondamir “Makorim ul-axloq”da N.ning M. va uning otasi Amir Sulton Hasanlarning “ko‘p ichish orqasida o‘tib ketganlar”i va bularning vafotlari ta’rixi haqida quyidagi qit’ani keltiradi:

Mir Sulton Hasanki yak soat,
Nabudash zi ishtig‘oli may dury.

Mirzobek nuri diydayi o‘
Bud masti sharobyui angury.

Ki qazoshon rasid zi ofati may,
Lek vaqti xumoru ranjury.

Bud mobayni favtashon deh sol,
V-in buvad mahz sidqu mashhuryo.

Gasht ta’rixi favti on “maxmur”,
V-in yake shud ayon zi “maxmuriy”.

Tarj.: Amir Sulton Hasan biror soat ham may ichishdan to‘xtamagan. Uning nuridiydasi Mirzobek uzum mayi bilan mast edi; Lekin xumorlik va xastalik vaqtida may kasofatidan qazolari yetdi. Ularning vafotlari orasi o‘n yil edi, bu to‘g‘ri va mashhur so‘zlar. Uning vafotiga “maxmur” so‘zi ta’rix bo‘ldi, o‘g‘lining vafoti ta’rixi esa “Maxmuriy” so‘zidan ayon bo‘ladi”. “Maxmur” so‘zi abjad hisobida 886/1481-82, “maxmuriy” esa 896/1490-91 bo‘ladi.

M.ning mozori Samarqandda Ahmad Hojibek madrasasida.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Т., 2015; Абдуллаев В. Навоий Самарқандда. – Т., 1988.*

S.G‘.

MIRIY (taxallusi: asl ismi-sharifi: Ochildimurod Ne’matullo o‘g‘li) (1830–1899, Kattaqo‘rg‘on) – shoir, xattot, tarjimon. Asli ismi Muhammadquli bo‘lib, chaqaloqligida changak kasaliga chalingan va tuzalib ketishi u-n odatga ko‘ra, Ochildi, Ochildimurod deb ataganlar va keyinchalik bu uning asosiy ismiga aylangan. Mulla Ochildi, Ochildi Maxdum, so‘ng esa Qozi Ochildi nomlari b-n mashhur bo‘lgan. Otasi Kattaqo‘rg‘on o‘zbeklaridan, onasi Qorako‘ldan bo‘lgan. Bu haqda shoirning o‘zi hasbi hol xarakteridagi tarji’bandida “Az Qaroko‘lamu pursho‘ramu koni namakam” (“Qorako‘ldanman-u peshonam sho‘r-u tuzning koniman”) deb yozadi. Bu b-n u Qorako‘ldan bo‘lganim u-n ham baxtim qora-yu peshonam sho‘r, bundan ichim to‘la g‘am, deya zimdan kinoya qiladi.

Eshonqishloq maktabida boshlang‘ich ta’limni olib, Kattaqo‘rg‘ondagi Naqibxo‘ja madrasasida o‘qiydi. O‘zining yozishicha, 14 yasharligida yozgan “Kunekim, men sari ul mug‘bacha tazallum etar” misrasi b-n boshlanadigan g‘azali Kattaqo‘rg‘on qozisi Abdulaziz Roqim qo‘liga tushib, uni nihoyatda hayratda qoldirgan va “Bu iste’dodli bolaga bir taxallus lozim ekan” deb, g‘azal oxiriga:

Visol istayub ul piri dayrdin Miriy,
Mudom nay kibi ovoz etib, tarannum etar, –

baytini tazmin qilib, unga M. taxallusini beradi.

21 yoshida Buxoro madrasalaridan biriga o‘qishga kiradi. Bu yerda u adabiyot, tarix, arab

tili, husnixat va musiqani o‘rganishga alohida e’tibor qaratadi. 11 yil madrasa tahsilini olgach, qishlog‘iga qaytib, otasidan qolgan bir parcha yerda dehqonchilik qiladi. Bu haqda uning o‘zi shunday yozadi:

Dar in jo kasbi man shud dehqoni,
Zaminro meshikofam bahri noni.

Tarj.: Bu yerda mening kasbim dehqonchilik edi – non u-n zaminning ko‘ksini tilar edim.

1870-y. boshlarida Kattaqo‘rg‘onning Haydarchaman mahallasida maktabdorlik qiladi. Darsdan bo‘sh paytlarida xattotlik qiladi, badiiy ijod b-n shug‘ullanadi. 7 ming baytdan ziyod “Ra’no va Zebo” (tojik tilida) dostonini qisqa bir fursatda (1883–1884) yozib tugatgani uning shoirlik salohiyati baland bo‘lganligini ko‘rsatadi. Nasx va nasta’liq xatlarini chiroyli yozgan. Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, N., Bedil kabi buyuk so‘z san’atkorlarining devonlarini ko‘chirgan. U Rudakiydan tortib to o‘z davrigacha yashab o‘tgan mashhur shoirlarning asarlarini o‘z ichiga olgan bayoz ham tartib bergan. Sa’diy Sheroziy merosidan ham bir majmua tuzib, o‘zi kitobat qilgan.

1888-y.da Kattaqo‘rg‘on qoziligiga saylanadi. Bu mansabda odilligi va tadbirkorligi b-n xalq orasida hurmat va shuhrat qozonadi. 1896-y.da uni qozilikdan bo‘shatishgach, shahardagi hovlisini sotib, Eshonqishloqqa ko‘chib ketadi.

M. merosi bizgacha, deyarli, to‘liq: o‘zbekcha va tojikcha she’rlaridan tuzilgan 2 ta devoni, 2 ta bayozi va qator masnaviylar yetib kelgan. G‘azallari an’anaviy ishq-u muhabbat mavzusida bo‘lib, ularda o‘zi mansub zamon muammolari ham o‘z aksini topgan. Hajviy she’rlarida esa riyokor qozi-yu mullalar, insofsiz amaldorlarni fosh qilgan. Ijodida dostonlari asosiy o‘rin tutadi. U so‘nggi asrlarda bir qadar susaygan dostonchilik an’anasini rivojlantirib, tarixiy voqealar asosida romantik uslubda “Qissayi Salim Javhariy” (1887), “Rustam va Suhrob”, (1898), “Majdiddin va Faxrunniso” (1899) dostonlarini yozib, ularda adolatli jamiyat, farovon turmush va komil inson haqidagi g‘oyalarni ilgari suradi. “Gulnoma” masnaviysida hayot go‘zalliklarini tarannum etib, inson mehnatini ulug‘laydi. “Choynoma” masnaviysida ham hayot haqidagi falsafiy-estetik qarashlari aks etgan. Mohir tarjimon ham bo‘lib, Firdavsiy “Shohnoma”sining bir qismini, Husayn Voiz Koshifiyning “Anvori Suhayliy” asarini nazmda tarjima qilgan.

M. ijodiga N.merosining ta’siri katta. Tojikcha g‘azallaridan birida u yozadi:

Amiri she’r ba iqlimi turk kishvargir,
Navoiy Miri Alisheri sho‘hra nomiyam.

Tarj.: Turkiy olamda barcha mamlakatlarni yakqalam qilgan she’riyat sultoni Mir Alisher Navoiy bo‘lib, (men ham uning izidan bormoqdaman). Bu ta’sir shoirning o‘zbekcha she’rlarida yaqqol seziladi. “Aylasa”, “Aylab”, “Do‘st”, “Et”, “Aylagach”, “Qadah”, “Shayx”, “Kog‘-az”, “Laziz”, “O‘ynar”, “Etar”, “Etmish”, “Aylamish”, “Xat” radifli g‘azallarida bu hol yorqin ko‘zga tashlanadi. Jumladan, N.ning “aylagach” radifli mashhur g‘azali ta’sirida yozgan g‘azali maqta’sida o‘qiymiz:

Fayz jomidin nasibim berdi Jomiy mavlaviy –
Kim, Navoiy ruhidin Miriy madadkor aylagach.

U buyuk salafining qator g‘azallariga muxammas ham bog‘lagan.

M. o‘zi ustoz deb bilgan zabardast so‘z san’atkorining “Senga”, “Aylasa”, “Et”, “Etmish”, “Aylagach”, “Shayx”, “O‘ynar”, “Ayladim” radifli qator g‘azallariga tatabbu’ qiladi. Shoir tatabbu’larining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri ularning maqta’sida ko‘pincha N. nomini ham zikr etib, undan ilhomlangani va ta’sirlanganiga e’tiborni qaratadi. Chunonchi:

Hazin Miriy navo istar Navoiy misra’idin ko‘p,
Ul oyni ishqida, yo Rab, meni mundin batar zor et.

U buyuk salafining “Ko‘nglum o‘rtansun, agar g‘ayringg‘a parvo aylasa”, “Ne xush bo‘lg‘-

ay, ikavlon mast bo‘lsak vasl bog‘inda”, “Tun oqshom keldi kulbam sori ul gulrux shitob aylab”, “Turra marg‘ulin ochib, ruxsori mahsiymog‘a soch”, “Qaro ko‘zum kelu mardumlig‘ emdi fan qilg‘il”, “Visol tuxmini ektim – firoq bar toptim”, “Ohkim, ishq ayladi shaydo meni”, “Sensizin, ey umr, bir soat manga jon o‘lmasun”, “Yuzingkim tozaroqdur bargi guldin”, “Qaysi taqvi xirmanin fisq o‘tidin kuydurmadim”, “Ne yanglig‘ ayladi tasvir orazing naqqosh”, “Ey jamoling partavi ravshan azaldin to abad”, “Zihi husnung zuhuridin tushub har kimga bir savdo”, “Ul oyning gulshani husnin xazondin asrag‘il, yo Rab”, “Zihi, ko‘k boshig‘a gardun xiromingni izidin toj” misralari boshlanadigan 15 ta g‘azaliga muxammas ham bog‘lagan.

Bu muxammaslarda uning buyuk salafi panjasiga panja ura olgani, g‘azallarni badiiy barkamol muxammaslarga aylantira olganligining guvohi bo‘lamiz. Jumladan, “Ne xush bo‘lg‘ay, ikavlon mast bo‘lsak vasl bog‘inda” misrasi b-n boshlanadigan g‘azaliga bog‘lagan taxmisidagi quyidagi misralar ham o‘zi qo‘shilgan bayt b-n qo‘shilib, o‘zaro ajralmas bandni hosil qilganligini ko‘rish mumkin:

Biyiklardin, bale, ojizga oyini karam
xushdur,
Yigitlik mavsumin shukrini
tutmoq mug‘tanam xushdur,
Zihi fursat, zihi dam – yor vasli,
dam – shu dam, xushdur,
Ne kelsa, tongla kelsun, bir tun usruk
yotsa ham xushdur,
Kishi gul chog‘i bir gul xirmanin
tortib quchog‘inda.

Maz.: Ulug‘lardan ojizga muruvvat rasmi go‘zaldir, yoshlik faslining shukrini qilishni g‘animat bilish yaxshi, yor vasliga muyassar bo‘lib o‘tgan damdan yaxshi yo‘q ma’nosidagi misralarni tizadi va ular N.ning: “Kishi gul mavsumida gul xirmonini quchog‘iga tortib bir kecha mast-u sarxush yotganida uning boshiga har nima kelar bo‘lsa, ertaga kelsin” mazmunidagi bayti b-n bir butunlikni tashkil etadi.

M. tomonidan qo‘shilgan misralar buyuk salafi fikriga munosib zamin bo‘lishi barobarida mav’iza ruhida ekanligi b-n ikki karra badiiy qimmat kasb etadi – uch misrada uch hayotiy hikmat ilgari surilyapti: 1) kuchlilarning ojizlarga muruvvat qilishi eng ezgu odat hisoblanadi; 2) yoshlik davrining shukrini g‘animat bilishga nima yetsin; 3) yor vasliga muyassar bo‘lib o‘tgan dam – eng go‘zal damdir.

Tatabbu’ va muxammaslaridan tashqari ham M.ning qator she’rlarida navoiyona ohanglarni ko‘ramiz, N. qo‘llagan timsol-u tashbehlardan ijodiy foydalanib, ularning yangi qirralarini kashf etganiga guvoh bo‘lamiz, ustozi fikrlarini davom ettirib, rivojlantirgani va ma’no doirasini kengaytirganini ko‘ramiz. Jumladan, N.ning “G‘amimning boisi beg‘amligingdur” degan mashhur misrasi mavjud. M.ning quyidagi bayti shunga hamohang jaranglaydi.

G‘amim nihoyati yo‘q, istamon
dame g‘amsiz,
Ko‘ngul huzuri g‘amingdindurur,
g‘am uzra g‘am et.

N. sevib qo‘llagan irfoniy mazmundagi “singan safol”, “raz qizi” obrazlaridan ham M. ijodida keng istifoda etiladi.

Ad.: *Мирий. Танланган асарлар. – Т., 1965. Маҳмудов М. Очилди Мирий // Мирий. Танланган асарлар. – Т., 1965; Абдуллаев В., Валихўжаев Б. Мирий ва унинг замондошлари. – Т., 1977; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 2. – Душанбе, 1989; Очилов Э. Муҳаббат гулшанининг соҳибнавоси // Филология ва маданият масалалари (Илмий-услубий мақолалар тўплами). № 2. – Карабук (Туркия), 2020; Очилов Э. Мирий ижодида Навоий анъаналари // “Академик Ботурхон Валихўжаев ва муттоз адабиётшунослик” мавзуидаги илмий-амалий анжуман материаллари. – С., 2022.*

E.O., S.O‘.

MIRKARIM OSIM (1907–1984, Toshkent) – yozuvchi. 1917–1920-yy.da “Shams ul-urfon” nomli boshlang‘ich maktabda o‘qigan. 1921–1924-yy.da esa Narimonov nomidagi ta’lim va tarbiya texnikumida tahsil ko‘rgan. 1926-y.dan Moskva Davlat pedagogika institutining tarix-iqtisod fakultetida o‘qib, uni 1930-y.da tugatgan. So‘ng Samarqanddagi o‘qituvchilar tayyorlash kursida, 1932-y.dan esa O‘zbekiston Maorif xalq komissarligi qoshidagi Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutida ishlagan.

Adibning 70 yilligi munosabati b-n unga “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi” unvoni berilgan. 2001-y.da esa Vatan oldidagi unutilmas xizmatlarini inobatga olib, unga “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni berildi.

M.O. tarixnavis adiblar orasida o‘tmish haqiqatini buzmay, uni qayta badiiy jonlantirishi b-n ajralib turadi. Uning asarlari mazkur yo‘nalishda qalam tebratgan ijodkorlarning keyingi avlodi u-n adabiy maktab vazifasini o‘taydi.

Vatanimiz o‘tmishiga, xalqimiz orasida yetishib chiqqan ulug‘ insonlar taqdiriga nihoyatda qiziqqan yozuvchi ijodi davomida ana shu mavzuda o‘nlab asarlar yaratdi (“O‘tror”, “To‘maris”, “Temur Malik”, “Aleksandr va Spitamen”, “Mohlar oyim va Xonposhsha”, “Karvon qo‘ng‘irog‘i”, “Elchilar”, “Zulmat ichra nur”, “Jayhun ustida bulutlar” (Beruniy haqida), “Ibn Sino qissasi”, “Aljabrning tug‘ilishi” (Al-Xorazmiy haqida),”Singan setor” (Mashrab haqida).

Adibning tarixiy mavzudagi ilk asari – “Astrobod” qissasi N. hayotiga bag‘ishlangan bo‘lib, keyinchalik N. hayoti va ijodiy faoliyatini yorituvchi “Alisher Navoiy va Darvishali”, “Badarg‘a”, “Navoiyning xislatlari”, “Ulug‘bek va Navoiy” singari hikoya hamda qissalarda shoirning badiiy obrazi o‘zbek adabiyotida birinchi marta epik ko‘lamda aks ettirilgan edi. Uning tarixiy mavzuda bitgan asarlari, xususan, yuqorida sanalgan kitoblar orasida “Zulmat ichra nur” qissasi diqqatga molik. Mazkur qissa XX asrning 60-yillarida N. ning 525 yillik tavalludi munosabati b-n yaratilgan.

To‘rt yoshli Alisherning ilk saboq ola boshlagan kunlaridan tortib, to umrining so‘nggi kunlarigacha bo‘lgan hayotiy faoliyati yaxlit qamrab olingan mazkur tarixiy-biografik qissadagi har qaysi hikoya bir mustaqil asar bo‘lib, unda N. hayotidan xarakterli bir voqea tasvirlanadi.

Xalqimizning N.ni yaqindan bilishi, sevib ardoqlashi, bu ulug‘ farzandiga sadoqat va e’tiqod b-n qarashida M.O.ning asarlari, ayniqsa, “Zulmat ichra nur” tarixiy qissasi muhim ahamiyatga ega.

Tabiiyki, adibning L.G.Batning N.ga bag‘ishlab yozilgan “Hayot bo‘stoni” qissasini tarjima qilganligi ham uning mazkur mavzudagi adabiy-ijodiy qarashlari shakllanishida o‘ziga xos o‘rin tutgan.

Ad.: *Мирвалиев С., Шокирова Р. Ўзбек адиблари. – Т., 2007; Осим М. Карвон йўлларида. Сайланма. Тарихий қиссалар. – Т., 1987; Маллаев Н. Алишер Навоий ва халқ ижодиёти. – Т., 1974.*

B.R., S.O‘.

MIRXOND (Taxallusi; to‘liq ismi: Mir Muhammad ibn Sayyid Burhonuddin Xovandshoh ibn Kamoliddin Mahmud (1433, Buxoro – 1498, Hirot) – mashhur tarixchi olim. Ota-bobolari asli buxorolik bo‘lib, fiqh ilmida mashhur bo‘lishgan. Otasi Sayyid Xovandshoh keyinchalik Balxga ko‘chib, N. ta’biri b-n aytganda, bu mulkning taniqli donishmand va ulug‘laridan bo‘lgan. Lekin Sayfiddin Boxarziy maqbarasiga ko‘milgani umrining so‘nggi yillari ona yurtida o‘tganidan dalolat beradi. M. Buxoroda madrasani tugatib, otasi vafotidan keyin Hirotga kelgan. Xondamirning yozishicha, turli fanlarni egallab, zamon fozillari safidan joy olgan, xususan, tarixni yaxshi bilsa-da, na mudarrislik qilish, na risola yozishga rag‘bat ko‘rsatgan. M.ning tarix sohasidagi tengsiz ilmi va ulkan salohiyatini ko‘ra bilgan N. uni

tarixga oid yirik asar yozishga ilhomlantirgan, moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlab, “Xalosiya” xonaqohidagi o‘zi u-n tayyorlagan xonani butun jihozlari b-n ixtiyoriga topshirgan. O‘zining boy kutubxonasidan foydalanish imkoniyatini yaratgan. Bugina emas, u yozilajak asar tarhini tuzishda muarrixga yordam beradi. Reja tuzilgach, voqealarni boshqa manbalardan aynan ko‘chirmay, ularga ijodiy yondashish, asarni o‘tmishda yaratilgan tarixiy asarlar u-n an’ana bo‘lgan majoziy til va murakkab uslubda emas, balki sodda va tushunarli yozish talabini qo‘yadi. Asar muqaddima, 7 daftar va xotimadan tashkil topib, har jild bir-birini mantiqan davom ettirishi, ayni mustaqil va puxta bo‘lishi lozim edi. N. homiyligida u g‘ayrat b-n ishlab, qisqa bir fursatda – 1474–1494-yy.da 7 jildli “Ravzat us-safo fi siyrat ul-anbiyo va-l-muluk va-l-xulafo” (“Payg‘ambarlar, podshohlar va xalifalarning tarjimayi holi haqida poklik bog‘i”) asarining 6 jildini yozib tugatadi. Bu jild (daftar)lar mazmuni quyidagicha: 1-jild – dunyoning yaratilishidan sosoniylar sulolasi inqirozigacha; 2-jild – Muhammad (s.a.v.) va 4 xalifa tarixi; 3-jild – umaviy va abbosiy xalifalar tarixi; 4-jild – umaviylar va abbosiylar davrida O‘rta Osiyo; 5-jild – Chingizxon va chingiziylar tarixi; 6-jild – Amir Temurdan Sulton Abusaid vafotigacha bo‘lgan davr tarixi; 7-jild – Husayn Boyqaro va uning avlodi tarixi bo‘lib, XV asr oxirida Sulton Boyqaro saltanatida yuz bergan notinchliklar tufayli M. uni tugatolmagan, yozilgan qismlari esa yo‘qolgan va uni nabirasi Xondamir 1521-y.da yozib tugatgan. Asarning dastlabki 6 jildi N. tahriridan o‘tgan.

M. asar muqaddimasida o‘zi foydalangan arab tilidagi 15 ta, fors tilidagi 25 dan ziyod tarixiy manbalarni sanab o‘tadi. Ularning ko‘pchiligi davrlar taloto‘pida bizgacha yetib kelmagan. Shuning u-n ham boshqa manbalarda uchramaydigan ma’lumot va tafsilotlarni “Ravzat us-safo”da uchratishimiz mumkin. Bag‘dod xalifasi Nosirning Xorazmshohga nisbatan g‘arazli niyatlar b-n Chingizxonga elchi jo‘natgani, Chingizxonning Markaziy Osiyo shaharlarini bosib olishi, mo‘g‘ullar davlatining asoschilari O‘qtoy, Haydu, Jo‘chi to‘g‘risidagi tafsilotlar, Samarqand sarbadorlari haqidagi fikrlar, Mirzo Ulug‘bekning 1425-y.da jetelar ustiga zafarli yurishi haqidagi ma’lumotlar shular jumlasidandir. Ma’lumotlarga boyligi va yuksak badiiy uslubda yozilganligi u-n asar M.ga olamshumul shuhrat keltirdi. U Sharq mamlakatlarida bir necha marta, jumladan, Bombey (1845, 1848), Tehron (1850-56, 1860) va Lakhnav (1874, 1883, 1890)da chop etilgan. Yevropaning ingliz, nemis, fransuz kabi ko‘plab tillariga tarjima qilinib, asar ustida tadqiqotlar olib borilgan. Muhammad Rahimxon Feruz davrida (1865–73) Munis, Ogahiy va Rojiylar tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan.

N. “M.N.”da M.ni insho va tarix fanida benazir deb ta’riflaydi. Dunyoning yaratilishidan hozirgi kungacha bo‘lgan tarixini yozishni unga topshirgani va bu ish yarimlab qolganini aytadi va bundan foydali tarix bo‘lmasligiga umid bildiradi. Xusrav Dehlaviyning “Daryoyi abror” qasidasiga yozgan tatabbu’sidagi bir matla’si yaxshi tushganini ta’kidlaydi:

Har ki dast az obi hayvon shust, Xizri vaqt o‘st,
V-on, ki az zulmati nafs omad burun, Iskandar ast.

Tarj.: Kim obi hayotdan qo‘l yuvsa, zamona Xizri o‘shadir, kimki nafs zulmatidan tashqari chiqqan bo‘lsa, Iskandar o‘shadir.

Umrining oxirida xilvatga chekingan – Gozurgohda toat-ibodat b-n shug‘ullanib, oxirat saodati u-n harakat qilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985; Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 6-жилд. – Т., 2003; Норқулов Н. Темурийлар даври маданияти тарихидан лавҳалар. – Хоразм, 1996.*

S.G‘., E.O.

MIRZO ALI XO‘QANDIY – XIX asrning birinchi yarmida yashagan. Qo‘qon xattotlik maktabining namoyandasi. N.ning “Terma devoni”ni nasta’liq xatda ko‘chirgan. Qo‘qon adabiyoti muzeyi. Inv. № 2. 148-varaq. Qo‘qon shahrida 1242/1926-27-yy.da kitobat qilgan.

Ad.: *Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. –Т., 1991; Собрание восточных рукописей академии наук Узбекистан. VII. – Т., 1964.*

Muh.A.

MIRZO MEHDIXON ASTROBODIY (XVIII asr, vafoti taxminan 1768) – kotib, tarixchi, tilshunos. M.M. yoshligidan yaxshi ta’lim oladi, fors tili qatorida arab va turk tillarini o‘rganadi. Aqliy salohiyati, chiroyli husnixati tufayli Eron shohi Nodirshoh Afshor (1688–1747) saroyida munshiy, bosh kotib, shohning shaxsiy biografi, tarixchisi bo‘lib faoliyat yuritadi. Nodirshoh vafotidan so‘ng saroydan ketib, ilmiy asarlarini yakuniga yetkazadi. Shohga bag‘ishlab yozgan “Tarixi jahonkushoyi Nodiri” asari mazkur davr tarixini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Matn uslubi, xat bitish bo‘yicha yaratilgan “Durrayi Nodira” (1962–63), “Inshonoma yoxud Munshaot” (1868–69) asarlari Tehronda nashr etilgan. U saroyda kotiblik qilish, safarlarda bo‘lish, xalqdan tushgan arizalar bilan tanishuv jarayonida N. asarlaridagi so‘zlar bo‘yicha lug‘atga material to‘plab boradi. Dastlab “Sangloh”ga kirish vazifasini o‘tovchi “Maboni’ al-lug‘at” (Til asoslari)ni tayyorlaydi. Unda N.ning 21 ta asarini sanab, grammatik qoidalar va ularni o‘zlashtirish bo‘yicha yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi, so‘zlarni masdar fe’llar, fe’l formalari kabi olti asosda tushuntirib beradi. Lug‘at oxiridagi “Zayl” qismi N. asarlaridagi arab, forsiy so‘z va iboralarni tushunishga ko‘maklashadi. Mirzo Mehdixon N. asarlari uchun o‘zigacha yaratilgan “Badoye’ al-lug‘at” va “Abushqa”dan bir necha marotaba katta bo‘lgan, 6181 ta lug‘at maqolani o‘z ichiga olgan “Sangloh”ni tayyorlaydi. Unda N. she’rlaridagi ma’no olamidan hayratlanish, fasih va go‘zal so‘zlarini o‘rganish maqsadida lug‘at tuzish va to‘plash istagi paydo bo‘lgani so‘zboshida aytib o‘tilgan. Bunday katta ishning yuzaga kelishida M.M.ning saroyda kotiblik qilishi, arab, fors, turkiy tilni yaxshi bilishi, so‘zning ma’no tovlanishlarini chuqur his qila olish qobiliyati foyda beradi. “Sangloh”ni nashrga tayyorlagan ingliz olimi Jerard Kloson uni yumshoq ko‘ngilli kishi bo‘lgan, deb taxmin qiladi. Sababi Mirzo Mehdi “Sangloh”ni tuzishda oldingi lug‘atlarda mualliflar yo‘l qo‘ygan xatolarni batafsil tuzatib, yakunlagan. “Sangloh” va “Maboni’ al-lug‘at” Ross Denison (1910), Yanosh Ekmann (1947), Basim Atalay (1950), Karl Menges (1956), Jerard Kloson (1960), Rushen Hiyaviy (1995), Muhammadzoda Sodiq Husayn (2015) tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, J.Kloson “Sangloh”ni Britaniya muzeyi va Bodlean kutubxonasidagi uch nusxasi asosida lug‘atning to‘liq matni va tahlili, statistik ma’lumotlari, jadval va ko‘rsatkichlari b-n ta’minlab, Londonda chop etgan (1960). J.Kloson mazkur fundamental ishi b-n “Sangloh”dan keng foydalanishga imkoniyat yaratadi. Anqarada Mehmet Riza Hayot 2021 yilda Mirzo Mehdining “Sangloh”, “Maboni’ ul-lug‘at”, “Kitob ul-alif” lug‘atlari matni bo‘yicha doktorlik dissertatsiyasini yoqladi. Olim ishda Eron, Istanbuldagi Sulaymoniya kutubxonasi nusxasi, Tehron universiteti Markaziy kutubxonasi, Britaniya muzeyidagi qo‘lyozmalaridan foydalanib, lug‘atlar haqida batafsil ma’lumot bergan va lug‘atlar matnini lotin yozuvida ilova qilgan. Umuman, Mirzo Mehdixon Sharq xalqlari ilm-fanida N. asarlarini forsiy va turkiy tilli xalqlarga yaqindan tanitish uchun tinimsiz mehnat qilgan zabardast olimdir. O‘z navbatida “Sangloh” dunyo n.shunosligiga keng yo‘l ochgan manba hamdir.

Ad.: *Atalay, Besim (1950), Mirzâ Mehdi Mehmet Han Seng-lâò: Lûgat-i Nevai; Sanglāk̲, ed. Sir Gerard Clauson (London, 1960; Ҳасанов Б. Жавоҳир хазиналари (Алишер Навоий асарларига тузилган қўлёзма луғатлар). –*

T., 1989.; Mehmet Rıza Heyet. Mirzâ Mehdî Han Esterâbâdî, Senglah: Mebâniyü'l-Lügat ve Kitâbü'l-Elif (1v.-119r.). Doktora Tezi. Ankara, 2021.; https:// iranicaonline.org/ articles/ astarabadi-mirza-mohammad-mahdi-khan-b.

O.T.

MIRSHAYX PURONIY (XVI asr) − shoir, xattot. Hirotlik bo‘lib, xattotlik san’ati va adabiyot ilmini takomilga yetkazish maqsadida Movarounnahrga kelib, Buxoroda yashab qoladi. Yetti xil husnixatda tengsiz bo‘lgan. Buxoro Jome’ masjididagi yozuvlar uning qalamiga mansub.

N.ning yozishicha: “Shayx Abusaid Puroniyning xalafidur. Ikki pushtidin valoyat anga mavrusiydur. Va o‘z zotida ham qabuliyat ko‘pdur. Oz fursatda xututni andoq bitidikim, ul fan ustodlari o‘ttiz yilda oncha bitimaydurlar. Holo tahsilg‘a mashg‘uldur, derlarkim, rushd osori zohirdur”.

M.P. haqida Hasanxoja Nisoriy ham ma’lumot bergan:

“Ko‘p ilmlarni mutolaa qilgan kishi edi va ba’zilarida tasniflari ham bor. Boshqa fazilatlardan ham to‘la xabardor edi. Ayniqsa, husnixatni shu qadar zo‘r bitar ediki, e’tiroziga so‘z topib bo‘lmasdi. Oltin bilan bezash va boshqa har xil naqqoshlik ishlarida ham tengi yo‘q san’atkor ekanligini namoyish qilardi...

M.P. shahar (Buxoro − E.O.) ichkarisidagi Chorsu masjidida mudarrislik qilardi. Sharif tab’i she’r bobida ham mashg‘ulotga band bo‘lardi...

Yoshi yetmishdan oshganda vafot etdi. Xoja Isfahoniy qabri yonida dafn etilgan”.

E.Ochilov ruboiylaridan namunalar tarjima qilgan.

Hajringda meningdek dili qat-qat g‘am yo‘q,
G‘am ichra muruvvatingga muhtoj ham yo‘q.
Bu dard-u g‘amimni sharh etish istayman,
Ammo, ne qilay, biror yaqin hamdam yo‘q.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1989; Ҳасанхожа Нисорий. Музаккири аҳбоб. – Т., 1993; Миршайх Пуроний. Рубоийлар. Донишмандлар туҳфаси. – Т., 2009.*

E.O.

MIR’OTI GETINAMO – jahonni ko‘rsatuvchi ko‘zgu, oyinayi jahonnamo. Chin xoqoni Iskandarga rostgo‘y va yolg‘onchi, hushyor va mast kishilarni ajratib ko‘rsatuvchi Chin oyinasini tuhfa etganidan so‘ng jahongirning fikr-u xayolini yer va osmon sirlarini kashf etadigan asbob yaratish band etib oladi. Uning amriga ko‘ra, olimlar 2 guruhga bo‘linib, bir guruhi falakning ahvoli, osmon jismlarining harakatini o‘rganadigan usturlob, 2-guruhi olam hodisalarini o‘zida aks ettiradigan M.G. yaratadilar. U po‘latdan yasalgan bo‘lib, ko‘zguga o‘xshar edi. Lekin boshdan-oyoq tilsim edi. Jahon va undagi barcha narsalar aks etgani u-n uni M.G. deb ataydilar.

Iskandar Chin xoqonini chorlab, bu 2 jism taqdimotini o‘tkazadi.

Biridin ayon bo‘ldi aflok ishi,
Yana biridin arsai xok ishi.

Birida to‘quz charx taqsim bo‘lub,
Birida ayon yetti iqlim o‘lub.

Xoqon yunon olimlari kashfiyotiga tan berib, ularga tahsin o‘qiydi. Iskandar esa ularga behisob mol-dunyo beribgina qolmay, Yunon mulkini ham suyurg‘ol qiladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

E.O., M.A.

MISKIN – bechora, kambag‘al; Haqni tanish yo‘lidagi darvesh. M.lik solikdagi baland hollardan biriki, nafs mujodalasida shayxlar bunga qattiq e’tibor qaratishgan, shuning uchun irfoniy adabiyotda M. obraz darajasiga ko‘tarilgan. N. ham “N.M.”da Ma’ruf Karxiy (q.s.)ning vasi-

yatini keltiradi: “ehtiyot bo‘l Allohu taolo seni Miskin suratidin boshqa suratda ko‘rmasin”. Mavlono Faxriddin Luristoniy (q.s.) ham shunday iltijo qilgan: “Allohim, meni miskin holda bor qil, miskin holda o‘ldir va Miskinlar qatorida qayta tiriltir!”

N. lirikasida M. aksariyat, maqta’da kelib, shoirning o‘ziga nisbatan qo‘llangan:

Miskin Navoiy bersa jon, ey diyda,
har dam to‘kma qon,
Ul har necha qilsa fig‘on, sen asrag‘il
zinhor dam.

Yoki:

Iltimosim budururkim, barcha eldin yoshurun
Qilg‘asen miskin Navoiy dardin izhor, ey ko‘ngul.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

Z.R.

MISR – Afrikaning shimoliy-sharqida, Nil daryosining quyi oqimida joylashgan qadimgi davlat. Hozirda Misr Arab Respublikasi. Qadimgi sivilizatsiya markazlaridan biri hisoblanadi. M. davlati adabiy, tarixiy, ilmiy kitoblarda davlat nomi sifatida tilga olinadi. Misr davlati o‘zining qadimgi moddiy, ma’naviy yodgorliklari b-n dunyo tamaddunida alohida e’tirofga molikdir. N. ham o‘zining asarlarida turli muddaolari b-n M. tarixiy toponimiga murojaat qilgan. Ayniqsa, “N.M.” va “T.A.H.” kabi kitoblarida tilga olgan.

O‘rganishimizga ko‘ra, “N.M.”da Misriy laqabi b-n bir nafar shayx, ya’ni Zunnun Misriy nomi uchraydi. N. unga fiqra bag‘ishlagan. Fiqrada shayxning M.ning Ixmim degan mavzesidan ekanligiga urg‘u bergan. Yana N. “N.M.”da Imom Ahmad Xanbal, Abul Husayn Nuriy, Abu Abdulloh Nebojiy, Yusuf binni Husayn Roziy kabi shayxlarga bag‘ishlangan fiqralarida ham M. atamasi Zunnun Misriy nomi b-n bog‘lab tilga olingan. M-n, Husayn Roziy uning shogirdi ekanligini “Zunnun Misriy shogirdidur” deb aytib o‘tgan.

Yoki Isrofil Mag‘ribiy – Abdulla Ansoriy ma’lumotiga ko‘ra, Zunnun Misriyning ustozi, shayxning M.da peshvo ekanligini ta’kidlab ko‘rsatadi: “Shayx ul-islom (q.s.) dedikim, ul Zunnunning pirlaridandur. Mag‘ribdin erdi va Misrda peshvo erdi. Zuhd-u tavakkul-u muomalatda yaxshi so‘zlari bor”.

Abulhoris Avlosiy fiqrasida shayx haj safari davomida Shomga sayohat qilar ekan, M. nomini N. bir xabarda ikki marta qo‘llagan. “Ham ul debdurkim, bir necha masala halli uchun xidmatig‘a Misr azimati qildim. Men Misrg‘a yetgan kunning burung‘i kuni Zunnun olamdin o‘tub erdi. Qabri boshig‘a borib, anga namoz qildim, meni uyqu eltti, Zunnunni voqeada ko‘rdum, mushkil bo‘lg‘an masalalarimni so‘rdum, barchasig‘a javob toptim”. Bir narsani alohida ta’kidlash zarurki, “N.M.”da tilga olingan M. tarixiy toponimi deyarli Zunnun Misriy nomi, faoliyati, karomati, shogirdlari va qabri b-n bog‘liq tasvirlardagina uchraydi.

N. “T.A.H.” asarida ham payg‘ambarlarning M. davlati b-n bog‘liq sarguzashtlariga diqqat qaratgan. Asarda Ibrohim (a.s.) ning M.da kechgan hayoti b-n bog‘liq shunday tasvir berilgan: “Ibrohim (a.s.)ni Bobil shahridin ixroj qildurdi. Ibrohim (a.s.) Sora bilaki amuzodasi va jufti erdi, Misrg‘a bordi. Sibon binni A’lvonki Misr podshohi erdi”.

N. “T.A.H.” asarida Misr Azizi laqabi b-n mashhur bo‘lgan Yusuf payg‘ambar haqidagi lavhada ham ushbu tarixiy toponim Misr azizi tarzida qo‘llangan: “Ushbu yil Yusuf (a.s.) Misr azizi bo‘ldi”. Hatto, N. ushbu kitobida Yusuf (a.s.) payg‘ambarning M.da hukmronlik qilishi, Zulayho bilan bo‘lgan sarguzashtlari b-n bog‘liq voqealar bayonida qayta-qayta M. tarixiy toponimini uchratishimiz mumkin.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Ражабова Б. Даҳо шоир асарларида Миср тасвири // Халқ сўзи. 2023, 11 март.*

B.R.

MISRA (ar. – eshikning bir tabaqasi) – she’riyatning eng kichik birliklaridan biri, she’riy asarning, baytning bir satri, bir qator she’r. Arab tilida eshikning bir tabaqasi ma’nosini bildirgani jihatidan baytning yarmini M.ga o‘xshatganlar. Chunki ikki tabaqali eshikni bir-birisiz ochib-yopib bo‘lmaydi. Har ikki tabaqani baravar yopsalar eshik bo‘lganidek, har qanday M. ham ikkinchisisiz bayt bo‘lolmaydi.

Bayt 2 misradan tashkil topib, muayyan ma’noni ifoda etadi. M.lar orasida mazmun va shakl jihatidan mustahkam bog‘liqlik mavjud bo‘lib, biri ikkinchisini to‘ldiradi va rivojlantiradi. Ba’zi M. lar musallas, muxammas kabi janrlar bandlarining oxirida kelib, fikrlarni umumlashtiradi va xulosalaydi, bandlarni bir-biridan ajratib turadi.

N. “M.A.” asarida taqte’ u-n ko‘pincha M. larni misol sifatida keltiradi. Xalq qo‘shiqlari haqida to‘xtalar ekan, yozadi: “Va ana bu xalq orasida bir surud bor ekandurkim, hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf vaznida anga bayt bog‘lab bitib, aning misra’idin so‘ngra hamul bahrning ikki rukni bila ado qilib, surud nag‘amotig‘a rost keltururlar ermish va ani “mustazod” derlar ermish, andoqkim:

Ey husnunga zarroti jahon ichra tajalli,
mazhar sanga ashyo,
Sen lutf bila kavnu makon ichra muvalli,
olam sanga Mavlo.

Maf’uvlu mafo’iylu mafo’iylu fauvlun
maf’uvlu fauvlun

Ad.: *Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Ғиёс ул-луғот. Жилд 2. – Душанбе, 1988; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 2. – Душанбе, 1989.*

E.O.

MISQOL – 1. og‘irlik o‘lchovi: 4,262. 2. Tarozi toshi. 3. Majoziy: eng yengil, arzimagan narsa. N. “X.M.” devonlar turkumiga yozgan debochasida umri oxirida o‘zining sog‘ligi ketib, ancha zaiflashib qolgani haqida yozar ekan, bir necha o‘rinda parhezda yashashi, yegulik-ichkilik misqol tarozisida o‘lchanishi haqida ma’lumot beradi: “Agarchi marazimg‘a sihhat umidi paydo bo‘luptur, ammo hanuz g‘izo bila sharbatkim, ichilur-yeyilur, misqol tarozusi bila tortilur...”. “Notavonekim, yuqori mazkur bo‘lg‘andek g‘izo qilur, oshi misqol toshi bila bo‘lg‘ay...”.

Ad.: *Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. Т., 1984; Алишер Навоий. Хамсат ул-мутаҳаййирин. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011.*

E.O.

MIF VA NAVOIY – N. asarlarida qo‘llangan obrazlar olami, olg‘a surilgan umumbashariy, muhtasham g‘oyalar, tasvirlar, manzaralar, tabiat (peyzaj) b-n bog‘liq poetik lavha nasriy tasvirlarda mifologik (asotir) obrazlar qo‘llangan. Badiiy ijodiyotning eng qadimgi tur va janrlaridan biri asotir – mifdir. Dastlab mif atamasiga ta’rif bersak: “Mif – grekcha “mythos” so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida afsona, rivoya so‘zidan kelib chiqib, juda qadim zamonlardagi kishilarning koinot va hayot-

ning paydo bo‘lishi, tabiat hodisalari, ilohlar va afsonaviy qahramonlar to‘g‘risidagi tasavvurlarini bayon qilgan rivoyatlardir. Mif Sharq mamlakatlarida asotir nomi b-n ham yuritiladi.

N.shunoslikda ham “Mif (mif, rivoyat, afsona, asotir) va Navoiy” masalasi alohida mavzu hisoblanadi. Atoqli olim N.Mallayev o‘zining “Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti” kitobida bu masalaga alohida fasl ajratgan. Kitobning “Alisher Navoiy va mifologiya” bobida olim N.ning doston, lirik she’r, nasriy bayonlarida qo‘llagan mifologik obrazlar xarakterini, g‘oyalar talqinini yaxshi tadqiq etgan.

Turli manbalarda Markaziy Osiyo, Eron mifologiyasining ayrim namuna izlari saqlanib qolgani aytiladi. Markaziy Osiyoda Eron mifologik obrazlari ko‘pincha baxtsizlik, zulmat va kulfat, yaxshilik, go‘zallik kabi kuchlar o‘rtasidagi kurash fonida gavdalanadi. Buning ildizlari “Avesto”da Axuramazda (Xurmuz) yaxshilik timsoli, Axriman yomonlik timsoli sifatida tasvirlanadi. Qadimgi mifologik obrazlar N. asarlarida ham saqlanib qolgan. “T.M.A.”da N. Kayumars haqida alohida fiqra bitgan. N.ning ta’kidlashicha, Kayumars peshdodiylar sulolasiga mansub bo‘lib, peshvoz, adolatda oldinda yuruvchi hukmdor sifatida tasvirlasa, uchinchi tabaqa ashkoniylardan chiqqan podsholar sonini turlicha ko‘rsatadi. Ham “Shohnoma”da, ham N.da uchraydigan hukmdorlar qadimgi mifologik obrazlar hisoblanadi. Turli mualliflarda, xususan N.da ham aynan bir mif turlicha bayon va talqin etiladi. N. asarlaridagi mifologiyani 3 guruhga ajratish mumkin:

1. Ezgulik miflari – Kayurmars, Kushan, Taxmuras, Jamshid.

2. Yovuzlik miflari – Dev, ajdar, jin qiyofasida tasvirlangan. Said Hasan Ardasherga yozgan mashhur maktubida ma’lum bir kishilarni shayton va devga o‘xshatadi.

Ne el, ne kishi balki shayton-u dev,
Kelib barcha dab bedod-u rev.

Demak, dev va shayton zulm va adolatsizlik timsoli bo‘lsa, rev esa – makr, hiylaki, N. bundan “F.Sh.”, “S.S.”, “S.I.”da unumli foydalangan. “F.Sh.”ning XIX bobida F. uch ofatga yo‘liqadi. Shu ofatlardan biri devlar devi Ahramandir. “S.I.”da ya’juj va ma’jujlarga taalluqli tasvirlarda ularni ofat va dahshatning ramzi sifatida tasvirlagan. Iskandar saddi ham ya’juj va ma’jujlarga qarshi qurilgan tinchlik sulh devori edi.

3. Kosmogonik miflarda Qadimgi Sharqda astronomiya fani, uning kamoloti, kashfiyoti b-n bog‘liq yil kalendari, oy, hafta va sutkalar hisobini belgilash katta hodisa bo‘lgan. Qadimgi haftaning har bir kuni bitta sayyora nomi.

N. Shanba – Saturn, (Zuhal va Kayvon), yakshanba – Quyosh, dushanba – Oy, seshanba – Mars (Mirrix), chorshanba Merkuriy (Utorud va Atorud), payshanba – Yupiter (Mushtariy), Juma – Venera (Zuhra) kuni deb nomlangan. Bu kosmogonik miflar N.ning barcha asarlarida ko‘p qo‘llangan. Ayniqsa, ijodkorlarning homiysi hisoblangan Merkuriy (Utorud va Atorud)ni kosmogonik obrazi haqida lirik lavhalar bitilgan. Hatto shoir “X.”ning ba’zi o‘rinlarida Utorudga murojaat qilganini ham ko‘rishimiz mumkin. Yana N. kosmogonik miflardan “S.S.” dostonida unumli foydalangan. Bu holat, ayniqsa, uning yetti musofir, yetti qasr, yetti rang, yetti hikoya b-n bog‘liq go‘zal tasvirlarida uchratishimiz mumkin.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Адабиётшунослик терминлари луғати. – Т., 1970; Маллаев Н. Алишер Навоий ва халқ ижодиёти. – Т., 1974.*

B.R.

MIFTOH – mazkur so‘z N.ning lirik, epik va diniy-axloqiy asarlarida ikki ma’noda uchraydi.

Birinchidan, u Sirojiddin Abuyoqub Sakkokiyning “Miftoh ul-ulum” nomli asarini bir g‘azalida tilga oladi.

Band etiptur jadal ahli ishin ashkol andoq
Kim, ne “Miftoh” anga sud qilur, ne “Talxis”.

Ikkinchidan, N. mazkur kalimani asl lug‘aviy ma’nosida qo‘llaydi:

Xazina kalidin bu bir kelturub,
Yana qal’a miftohin ul topshurub.

Baytda M. qal’aning kaliti mazmunini anglatmoqda. “S.M.” asarida N. tahoratning qavlga bog‘liq o‘n sunnatini sanar ekan, uni ko‘chma ma’noda istifoda etib, tahoratni “A’uzu billahi minash-shaytonir rojiym” deb boshlash amallarning M.i – kalitidir, deydi:

Ul o‘ndin birini istiftoh bilgil,
“A’uzu ish bandig‘a miftoh bilgil.

“S.I.” dostonida ham M. so‘zi ramziylik kasb etadi: nazm ahlining ustozi, so‘z naqqoshi Nizomiy Ganjaviy yarim asr zahmatlar chekib, qon yutub, besh ganj – “X.”ning kalitini topganini yozadi:

Topa oldi besh ganj miftohini,
Yana oncha vaqt etti islohini.

“M.Q.”ning beshinchi faslida M. lafzining tasavvufiy mazmuni sabr maqomining asl mohiyatini yoritishga ko‘mak bergan: “Sabr o‘zni chiqarmoqdur, huzuz nafsonidin va tana’umot jismonidin va nafsni habs qilmoqdur ibodat mehnatida va qadamni sobit qo‘ymoqdur riyozot suubatida. Haq yo‘lida qotig‘ irikka tuzmakdur va yaxshi-yomondin har ne eshitgan va ko‘rganga taxammul ko‘rguzmakdur. Achchig‘dur, ammo sudmand; qattig‘dur, ammo dofei gazand. Qaysi nomurod ilik etagiga urdikim, murod topmadi? Va qaysi giriftor ko‘ngul sabr bandig‘a qo‘ydikim, kushod topmadi? Farahlar miftohidur va bandlar attohidur”

Ad.: *Алишер Навоий. Гаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

S.O‘.

“MOVAROUNNAHR TASAVVUFI TARIXI: TA’LIMOTNING SHAKLLANISHI VA TIZIMLASHTIRILISHI (VIII–XI ASRLAR)” – Manbashunos, tarjimon Komiljon Rahimov tomonidan tayyorlangan mazkur monografiyada XII asrgacha Movarounnahrda tasavvuf tariqatlarining paydo bo‘lishi va keyingi taraqqiyoti u-n zamin hozirlagani haqida ko‘p ma’lumotlar berilgan. Markaziy Osiyo tasavvufining so‘fiylik tariqatlari davrigacha bo‘lgan muhim xususiyatlari, g‘oyalari, yirik namoyondalari va Kalobodiy Buxoriyning “At-Ta’arruf” va Mustamliy Buxoriyning “Sharh at-Ta’arruf” asarlarining so‘fiylik manbalari orasida tutgan o‘rni va keyingi davr tasavvuf adabiyotlarining yaratilishidagi ta’siri tahlil qilingan. Kitobning n. shunoslik u-n ahamiyatli jihati shundaki, N. ijodidagi yetakchi g‘oyalarning manbalari, o‘zidan oldingi adabiyotlardagi talqinlarini, xususan, tasavvufiy tazkiralarning ilk manbalari b-n qiyosiy o‘rganishga yo‘l ochadi. “Sharh at-Ta’arruf”ning o‘zidan keyingi tasavvuf manbalariga ta’siri (XI-XV asr)” nomli IV bobida “Risolayi Qushayriya”, “Kashf ul-mahjub”, “Tazkirat ul-avliyo”, “Fasl ul-xitob”, “Nafahot ul-uns”, “N.M.” asarlari har biri alohida faslda qiyoslanadi. Jumladan, “Nafahot ul-uns” va “N.M.”ning manbalari, “Sharh at-Ta’arruf” b-n qiyosi, mushtarak jihatlari har biri uch fasldan iborat holda yoritilgan. Jomiy “Nafahot ul-uns”da “Sharh at-Ta’arruf”-dan foydalangani, xususan, Abu Hamid Do‘ston to‘g‘risida, samarqandlik so‘fiylar – Abulqosim Hakim Samarqandiy va Abu Tohir Borkatiy ha-

qidagi ikki hikoya “Sharh at-Ta’arruf”dan olingani asar matni keltirilgan holda qiyoslangan. N. tazkirani yozishda, asosan, “Nafahot ul-uns”, Abdurahmon Sulamiyning “Tabaqot us-sufiya”, Muhyiddin Arabiyning “Futuhoti Makkiya” va qator manoqiblardan foydalangan.

Ad.: *Раҳимов К. Моваруннаҳр тасаввуфи тарихи: таълимотнинг шаклланиши ва тизимлаштирилиши (VIII–XI асрлар). – T., 2020.*

Sh.R.

MOZANDARON – Eronning shimoliy-g‘arbida joylashgan viloyat. Astrobod viloyati b-n chegaradosh. Bu ikki viloyat bir-biriga yaqin bo‘lganligi tufayli o‘rta asrlarda Astrobodni ham M. deb atash uchrab turadi. N. ham ba’zan bu nomni shu ma’noda qo‘llaydi. M-n, “Xam.M.” asarida u Jomiy vafoti haqida so‘z yuritar ekan, o‘sha vaqtda Astrobodda bo‘lgan Badiuzzamon mirzoning ta’ziya bildirgani haqida shunday yozadi: “...Mozandaron mulkidin kishi yuborib, alar azosi uchun ba’ziga liboslar iltifot qilib erdilar ham muxatob faqir erdim”. Bu o‘rinda N. M. deganda Astrobodni nazarda tutgan. Shu b-n birga ayrim hollarda ularni farqlaydilar. Mirxond “Ravzat us-safo”da N. Astrobodga hokim bo‘lib kelganda, qo‘shni viloyatlar hokimlari unga elchilar va sovg‘a-salomlar yuborganliklarini aytib o‘tar ekan, M.ni alohida qayd etadi: “Mozandaron, Rustamdor va G‘ilon viloyatlarining hokimlari ul janobning Astrobodga hokim etib tayinlangani xabarini eshitib, Astrobodga maktub bilan elchilar orqali munosib tuhfalar yuborib”...

O‘rta asrlarda M. o‘zining o‘rmonlari, o‘tib bo‘lmas changalzorlari b-n mashhur bo‘lgan. Shu b-n bog‘liq holda o‘rta asr adabiyotiga “beshayi Mozandaran”(Mozandaron changalzori) iborasi kirib kelgan. Bu ibora N. she’riyatida ham qo‘llanganiga quyidagi bayt misol bo‘la oladi:

Ey, Navoiy, bilki ohi chekmisham beixtiyor,
Desalarki beshai Mozandarong‘a tushti o‘t.

N. “M.”idagi bir maktubda M. changalzorining tasviri berilgan. Maktub mazmunidan N. ning u yerda bo‘lganligi anglashiladi. Maktub N.ning Astrobodda bo‘lgan paytida yozilgan va yuqorida aytilganidek, bu ikki viloyat yaqin bo‘lgani tufayli N. M. changalzorini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgani va uning o‘sha paytdagi taassurotlari yuqoridagi maktubda aks etgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. 10 жилдлик, 1-жилд. – T., 2011; Алишер Навоий, Муншаот. 10 жилдлик, 9-жилд. – T., 2011; Навоий замондошлари хотирасида. – T., 1985.*

Q.E.

MOZORI SHARIF – Afg‘oniston shimolidagi Balx viloyatida joylashgan shahar, qadimgi nomi “Xoja Hayron”, Balxdan 15 km uzoqlikda sharqiy tomonda joylashgan, viloyatning sanoat va tijorat shahri. Tarixchi Mirxond “Ravzat ul-safo” kitobida, 885-1481 hijriy yili Husayn Boyqaro Balxda bo‘lgan vaqtida Boyazid Bistomiyning avlodidan Shamsuddin Muhammad Husayn Mirzoga Sulton Sanjar davrida yozilgan kitobni beradi. Bu kitobda “ ...marqadi (qabri) Ali ibn Abdutolib xoja Hayron (joy nomi) da falon joyda joylashgan”, deb yozilgan bo‘ladi. Husayn Mirzo Sayyidlar, a’yonlari va qozilarini to‘plab, birgalikda hozirgi Mozori Sharifga boradi, ko‘radilarki, kichkina gumbazli qabr, podsho buyrug‘i b-n qabr ochilganda, u yerda oq marmar tosh topiladi, unda “...haza qabri Asadullo, axi Rasululloh, Ali valiyulloh”, deb

yozilgandi. Husayn Boyqaro qabr ustida baland qubba bunyod qildirib, atroflarida ayvonlar qurdiradi. Shundan keyin shia va sunniylar uchun ziyoratgohga aylanib, “Xoja Hayron” qishlog‘i shaharchaga aylanadi.

Ad.: *Мирхонд. “Равзат ус-сафо”дан // Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985; Алиакбар Деҳхудо. Луғатнома. Теҳрон-1998.*

Muh.A.

MOLI AMON – g‘olib podshohga yengilgan mamlakatning to‘lovini bildiruvchi forsiy izofa. N. “S.I.” dostonida quyidagicha qo‘llagan:

Berib mulk eli lek moli amon
Ki andin topib bahra yaxshi-yomon.

“F.Sh.”ning 21-bobida Xoqon o‘g‘li Farhodning maqsadlariga yo‘l topish u-n Yunon mulkiga qo‘shin tortgani voqeasi tasvirida san’atkorona ishlatgan:

Yana ul mulkning yaxshi-yomoni
Taqabbul aylabon moli omoni.

Ulug‘ N. asarlarida ushbu juft jumlani qofiyaga chiqarib qo‘llaganda, unga qofiyadosh qilib yaxshi-yamon juft so‘zini keltirgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

B.R.

MONIY IBN FATTAK (taxminan, 216–277) – moniylik ta’limoti asoschisi; naqqosh, musavvir. III asrning 30-yy.da Eron, O‘rta Osiyo, Hindistonga safar qilib, buddaviylik, barahmaniylik va boshqa dinlar b-n tanishgan. Keyinchalik o‘z ta’limotini ishlab chiqqan va targ‘ib etgan. Bu ta’limotni Eron shohi Shopur I qo‘llab-quvvatlagan. M. zardusht kohinlarining qarshiligiga uchrab, Erondan qochishga majbur bo‘lgan. Uning tarafdorlari O‘rta Osiyo, Misr, Sharqiy Turkiston, Rim imperiyasining sharqiy viloyatlarida keng tarqalgan. 273-y. M. Eronga qaytgan, biroz vaqtdan keyin qatl qilingan.

N.ning “F.Sh.” dostonida Chin xoqoni o‘g‘li Farhodning ko‘ngil ochishi u-n yilning 4 fasliga moslab qurdirgan 4 qasrni bezagan naqqosh. To‘rt qasrning ichini ham M. turfa naqshlar bilan bezatadi – jonsiz suratlarga go‘yo jon bag‘ishlab yuboradi. Shoirning o‘zi uni “to‘rt suratxonai Chin” deb ta’riflaydi.

Vale Moniy oningdek naqshbandi –
Ki, naqshin charx anga naqshin parandi.

Mudavvar mustaqim o‘lsa raqamkor,
Chekib andoqki jadval birla pargor.

Chu bog‘lab surati bejong‘a zevar,
Bo‘lub ul nav’kim, ruhi musavvar.

Kelib ul naqsh kilki soyasidin –
Qo‘pub ul uyqudin ustodi mohir.

M.ning san’atiga qoyil qolgan Farhod undan naqqoshlik sirlarini o‘rganadi va ustozi b-n birga ishlab, oz fursatda bu borada ham tengsiz bo‘ladi:

Qay-u suratki, Moniy qildi timsol,
Anga Farhod ochti chehra filhol.

Farhod o‘limidan oldin sabo orqali yaqinlari va do‘stlariga salom yo‘llab, o‘z vasiyatini izhor qilganida M. nomini ham beqiyos ehtirom b-n tilga oladi. O‘zining Yunon safari davrida amalga oshirgan 4 ishi – ajdarhoni o‘ldirgani, Ahramanni yenggani, Iskandar oyinasi tilsimini ochgani va Suqrot b-n hamsuhbat bo‘lganini yetkazishi, o‘z navbatida, ustod musavvir ularni tarix u-n naqsh etib qo‘yishini so‘raydi.

N. “T.M.A.” asarida yozishicha, “ba’zi Moniy musavvirni bu Shopur (Shopuri Zulaktof – E.O.) zamonida debdurlar. Va payg‘ambarlig‘i da’visida

mo‘jizasi pargorsiz doira va qalam jadvalsiz mustaqim xat izhor qilibdur. Va hamkim, bir yumurtqacha kurrada olam suratini tortib va jami’ aqolim va bilod va jibol va bihorni mashruh yasab, kentlar va rudxonalarg‘acha ko‘rguzub erdikim, Shopur hujjat bila ani siyosat qilib, mardud millatin daf’ qildi. Aning osoridin Qazvinning shahristonidir va Madoyin shahrining tajdidi va Shustarda Shodurvon va Firuz Shopur va Seyistonda ba’zi yer va Hindustonda necha shahr”.

N. boshqa asarlari, g‘azallarida ham M.ni betakror va mo‘jizakor musavvir sifatida ko‘p tilga oladi. Chin naqqoshi deganda ham M. ko‘zda tutiladi.

Ma’lumki, qadimgi Xitoyda musavvirlik rivojlangan. Shuning u-n ham Sharq adabiyotida musavvirlarning mahoratda tengsizligini ta’kidlash uchun ularni, albatta, chinlik qilib ko‘rsatadilar. Bu hodisa sababini N. “L.T.” dostonining “Chin shahri sifati va Simurg‘ parining u yerga tushgani voqeasi” deb atalgan 19-faslida ko‘rsatib o‘tadi.

Bir kecha Simurg‘ olam uzra parvoz qilar ekan, Chin ustidan o‘tayotganda mamlakat birdan yorishib ketadi, bundan xabar topgan aholi esa hushidan ketib qoladi. Simurg‘ silkinganida, bir dona pari tushib qoladi va butun mamlakatni zeb-u hashamga burkab yuboradi. Bu parda turli rang-u naqshlar shunchalik ko‘p ediki, ertasi kuni o‘ziga kelgan aholi unga hayrat-u hayajon b-n boqadi va qo‘liga qalam olib, undagi ranglarni o‘z tasavvurida jonlantirib, qog‘ozga tushira boshladi – hammaning ishi surat chizish bo‘lib qoldi. Ular orasida bir kishi bu borada eng yuksak darajaga erishadi. Uning ismi Moniy bo‘lib, qalami – mo‘jizakor, san’ati barchani hayratga solar edi. Ma’no ahli Moniyning suratxonasi Chinda deb aytadilar. Shu tariqa Chin – musavvirlikka asos solingan mamlakat, musavvirlar vatani, Moniy esa musavvirlar sultoni sifatida mashhur bo‘lib ketadi.

O‘ylakim, Moniy ishidin zoye’ o‘ldi naqshi Chin,
Ul buti Chin suvratidin bo‘ldi naqshi monaviy.

Lekin N. tasviridagi ta’rifi yetti iqlimga ketgan go‘zalning suratini chizishga kelgan M. vorisi bo‘lgan chinlik mahoratda tengsiz musavvir ham ojiz. Ojizgina emas, bitta chiziq ham tortolmay o‘zi “naqshi devor”ga – devordagi suratga aylanadi.

Keldi Chin naqqoshi ul yuz naqshini
qilmoqqa tarh,
Chehra ochib, naqshi devor
aylading naqqoshni.

Maz.: Chin (Xitoy)lik musavvir suratingni chizish uchun kelgan edi, lekin yuzingni ochishing bilan uning o‘zi devorga chizilgan suratga o‘xshab qotib qoldi.

Suvratingdin ojiz ersa Moniy, ermastur ajab,
Qayda naqqosh aylagan qilki qazo tasvirini.

Aslida bu suratni chizishga sehrli mo‘yqalam sohibi M.ning o‘zi ham ojiz edi: “Agarda Moniy suratingni chizishdan ojiz bo‘lsa, buning sira ajablanadigan joyi yo‘q – qismat qalami yaratgan tasvirni naqqosh qanday qilib ham aks ettira olsin?”

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Очилов Э. Бир ҳовуч дур. – Т., 2011.*

E.O.

MOTURUDIY – Shayx Abu Mansur Muhammad Moturudiy hozirgi Samarqandning Motirud mavzesida 870-y. tug‘ilgan. Xususiy muallimlarda savod chiqargan M. zamonasining mashhur allomalari Abu Nasr Ahmada ol-Iyodiy, Abo‘bakr Ahmad binni Is’hoq al-Juzjoniy hamda Nusayr binni Yahyo al-Balxiylardan ta’lim oladi, keyin Samarqand madrasalarida mudarrislik qiladi. Bu mutasavvif olim 975-y.i vafot etgan. Uning qabri shahardagi Chokardiza qabristonidadir. M.dan islom tarixi va nazariyasiga oid

katta ilmiy meros qolgan. Ular orasida “Radd-al qaromata”, “Mo‘taziliya mavhumi ma’nosi bayonida”,“Kitob at-tavhid”, “Kitob ut-ta’lifot al-Qur’on”, “Kitob ul-usul”, “Kitob al-maqolot”, “Ma’xaz ash-shariya” juda mashhur asarlar hisoblanadi. M. barcha risolalarini o‘sha davr ilmiy tili arabiyda bitgan. Ilm-adab orasida “Sulton-ul-muizzin” unvoni b-n mashhur bo‘lgan. M. tarixda islom ta’limotining sofligi u-n mardonavor kurashgan olim sifatida muhim iz qoldirgan. Olim forsiy tilda maxsus “Pandnoma” yozgan. Asar axloqiy-ta’limiy, irfoniy-ma’rifiy mohiyatga ega bo‘lib, nazm va nasr aralash yozilgan. U X asr forsiy tildagi nasrning eng yaxshi namunasidir. N. “N.M.”da M.ning karomat va riyozatlari haqida qiziqarli hikoyatlar keltirgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик. 10 жилд. – Т., 2011.*

H.H.

MUAZZAMXON (1833, Xo‘jand – 1917, Jizzax) – zullisonayn shoira. Abdulla Alaviyning onasi Habibaxonimning xolasi bo‘lib, Xo‘jand shahridagi Chorshanbe guzari Masjidi Surx mavzesida tug‘ilgan. Otasi Mirsaid o‘z davrining o‘qimishli kishisi bo‘lib, barcha farzandlari, jumladan, M.ning ham savodli bo‘lishiga harakat qilgan. Ularda adabiyotga qiziqish uyg‘otib, adabiy bahslar o‘tkazib turadi; birgalikda muammolarni yechib, chistonlarning javobini topishadi. Bolalar orasida M. o‘tkir zehni va hozirjavobligi b-n ajralib turardi. Akasi unga she’r mashq qilishni maslahat beradi. Shu tariqa oilada savodini chiqargan M. yoshligidan she’r yoza boshlaydi. Forsiy va turkiy so‘z san’atining zabardast so‘z san’atkorlari asarlarini mutolaa qilib, ulardan mahorat sabog‘ini oladi.

M.ning umri davomida yozgan she’rlari turli sabablar b-n yo‘qolgan. O‘zi ham iste’dodli shoira bo‘lgan singlisi Muattarxonning M., Qambarxon va o‘z she’rlari asosida tuzgan “Xo‘jandning uch shoirasi majmuasi” tufayli qarilikda yozgan o‘zbek va tojik tillaridagi 1000 misradan ziyod she’rlari bizgacha yetib kelgan. G‘azallarida N. va Fuzuliyning kuchli ta’siri yaqqol sezilib turadi.

Ad.: *Жалолов Т. Муаззамхон шеърлари. Ўзбек шоиралари. – Т., 1980; Муаззам. Ғазаллар. Топишмоқлар. Асрлар нидоси. – Т., 1982; Жалолов Т., Ўзбек шоиралари. – Т., 1980; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 2. – Душанбе, 1989; Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 6-жилд. – Т., 2003.*

E.O.

MUALLIF OBRAZI – asarni yaratgan, yozgan, uning ijodkori bo‘lgan shaxs obrazi. M.O. ni adabiy asarning butun ma’no-mohiyatining markazi, muayyan asarning barcha qismlarining uzviy birligi, yaxlitligini ta’minlovchi asosiy bosh nuqta sifatida ta’riflash mumkin. M.O.ning yaratilishi lirikada, epik va dramatik asarlarda o‘ziga xos tarzda amalga oshiriladi. Lirik she’riyatda M.O., asosan, lirik qahramon vositasida yaratiladi. Biz istaymizmi, yo‘qmi, M.O. qiyofasi lirik qahramon haqidagi tasavvurlarimiz asosida shakllanadi. Lirik qahramon obrazida muallif shaxsiga xos xususiyatlar namoyon bo‘ladi. Shu b-n birga lirik qahramon obrazi bilan M.O. o‘rtasiga tenglik belgisini qo‘yish, ularni bir tushuncha sifatida talqin etish ham to‘g‘ri bo‘lmaydi. Chunki muallif obrazidan farqli bo‘lib, lirik qahramon obrazi lirik she’rda tasvir obyekti o‘laroq maydonga chiqadi. U muallif taxayyulining hosilasi. Unda faqat muallif shaxsiga xos qirralar, xususiyatlargina emas, barcha davrlarda barcha insonlarga xos bo‘lgan umuminsoniy ibtido ham o‘z aksini topadi. Buni N. ijodi misolida ham ko‘rish mumkin. Binobarin, N. lirikasida, xususan, g‘azallarida lirik qahramonga nisbat berilgan sifatlarni bevosita muallif shaxsiga tegishli, deb hisoblash, lirik qahramon boshidan o‘tkazgan voqealar, u kechirgan his-tuyg‘ular tasviridagi badiiy to‘qimani ham muallif biografiyasiga oid ma’lumotlar sifatida qabul qilish to‘g‘ri

emas va afsuski, ayrim tadqiqotlarda bunday yondashuv uchrab turadi.

M.O.ga xos asosiy xususiyatlar muallifning pozitsiyasida, mavzu va g‘oyada, uning tasvirlanayotgan hodisalarga, umuman, voqelikka bo‘lgan munosabatida namoyon bo‘ladi. N.ning barcha asarlarida, xususan, dostonlarida, ularning mavzusi, g‘oyasi, kompozitsiyasi, syujeti, obrazlar tizimida M.O.ning muhri yaqqol ko‘zga tashlanadi, uning ijodiy ongi, falsafasi o‘z in’ikosini topadi. M.O. avtor shaxsining adabiy asarda namoyon bo‘lish shaklidir. N.ning epik asarlarida bu hikoyaning, bayonning muallif tilidan olib borilishi orqali yuzaga keladi. N. nasriy asarlarida, jumladan, “M.Q.”, “V.”, “M.”, memuar-biografik asarlarida bayon, asosan, monologik nutq shaklida bo‘lib, bayonchi muallifning o‘zi bo‘lsa, adibning dostonlarida muallif ayni paytda roviy hamdir. Bu hol mazkur asarlarga muallif obrazini olib kiradi. Muallif – hikoyachi, muallif – roviy faqat hikoya qilibgina qolmaydi, u voqea va hodisalarga, shaxslarga o‘z munosabatini ham bildiradi va shu asnoda asta-sekin uning o‘z qiyofasi, bu obrazga xos xususiyatlar, muallif shaxsining qirralari ochilib boradi. U o‘quvchi ko‘z o‘ngida, eng avvalo, ulkan so‘z san’atkori, buyuk faylasuf va donishmand, katta hayotiy tajriba sohibi, o‘z davrining ilg‘or kishisi sifatida gavdalanadi. U hikoya qilish b-n barobar o‘rni kelganda tanqid ham qiladi, o‘rni kelganda qoralaydi, fosh qiladi, nafratlanadi, azob chekadi. Uning zamon va zamon ahliga, mavjud tartiblarga salbiy munosabatini alohida ta’kidlash lozim. Davrdan, odamlardan, ular yetkazgan jabr-u sitam va alamlardan shikoyat, tuban va razil kimsalarning qabih qilmishlarini, chirkin qiyofalarini fosh etish adib ijodida katta o‘rin tutadi. Shunday bo‘lishiga qaramay, muallif baribir insonlardan yuz o‘girmaydi, xato qilish, adashish, gunoh qilish insonga xos deb biladi va xato qilganlarni o‘z xatosini tuzatishga, gunohkorlarni o‘z gunohlarini yuvishga, turli salbiy illatlar, qiliqlar, kamchiliklarga ega kishilarni ulardan qutulishga da’vat etadi. “Sahv-u xato bashariyat lozimidur. Xato va sahvni anglab mutanabbih bo‘lg‘on saodatmand odamiydur. Xatosin zoyil qilur ulki, e’tirof sari qaytg‘ay va muzoaf qilur ulki, dalil ijro qilib harza aytg‘ay...”

Masnaviy:

Xatog‘a tadoruk nedur bexilof,
Ayon qilmoq o‘z sahvig‘a e’tirof...

M.O.ga xos xususiyatlar uning, hatto dushmanga muruvvat ko‘rsatishga da’vat etuvchi quyidagi jumlalarida ham aks etgan: “... g‘olib aduv mag‘lubing bo‘lsa, shar tarafin zohir qilib, xayr jonibin yopma. Qaviy dushmaning zabuning bo‘lsa muruvvat qil, karam va avf ko‘rguzgul”. Shu tariqa muallifning bag‘rikeng, insonparvar shaxs sifatidagi qiyofasi namoyon bo‘ladi. “Xam.M.”da N. podshohning Qunduz viloyatiga qo‘shin tortgani haqida yozar ekan, o‘zining bu yurishni to‘xtatish, uning oldini olishga harakat qilgani, ammo buning iloji bo‘lmaganini taassuf b-n qayd etadi va bu o‘rinda M.O. o‘quvchi ko‘z o‘ngida har qanday urush-talashlarga qarshi bo‘lgan, tinchlik u-n kurashgan, xalq manfaatini, uning osoyishtaligini ko‘zlagan davlat arbobi qiyofasida gavdalanadi. Garchi, M.O. N.ning barcha asarlarida mavjud va ularning hammasida mazkur obrazning turli jihatlari turli darajada aks etsa-da, shu b-n birga uning muayyan qirralari u yoki bu asarida boshqalardagidan ko‘ra yaqqolroq ko‘zga tashlanishi ham kuzatiladi. M-n, “M.”dagi yaqinlariga, do‘stlariga yozilgan xatlarda biz uni ko‘proq sodiq, samimiy do‘st, mehribon, g‘amxo‘r homiy qiyofasida, hukmdorlarga yozilgan maktublarda dono davlat arbobi, tajribali siyosatchi, nozik diplomat sifatida ko‘ramiz. “M.N.”da M.O.ga xos bir qator xususiyatlar aks etgan, lekin birinchi navbatda uning zukko adabiyotshunosga xos qirralari namoyon bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan “V.” asari, uning shohga murojaat tarzida yozilgan so‘nggi qismi alohida diqqatga sazovor. Muallif his-tuyg‘ularining teran ifoda etilganligi, o‘zgacha bir badiiyati, muallif shaxsiyatining buyukligini yaqqol ifodalashi

b-n ajralib turuvchi ushbu qismda N. o‘z qalbining tubidagi istaklari va xohishlarini, shu jumladan, hajga borish va yangi-yangi go‘zal asarlar yaratishdan iborat ikki maqsadini bayon qiladi. Asarning bu o‘rinlari bizga faqat N.ning rejalari, ijodiy orzulari haqida ma’lumot beribgina qolmay, ruhiy dunyosining naqadar boy va go‘zal ekanligini, shoirning sof va ezgu niyatlar, buyuk maqsadlar b-n yashaganligini ko‘rsatadi, uning yorqin obrazini yaratishga, oliyjanob va ulug‘vor siymosini yanada to‘liqroq tasavvur etishimizga xizmat qiladi.

Ad.: *Виноградов В.В. О теории художественной речи. Виноградов В.В. – М., 1971; Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. – Т., 2015; Эргашев Қ. Алишер Навоийнинг насрий услуби масалалари. – Т., 2022; Орлова Е. И. Образ автора в литературном произведении. – М., 2008.*

Q.E.

MUBOLAG‘A (ar. – orttirish, kuchaytirish, bo‘rttirish) − nasrda ham, nazmda ham eng ko‘p qo‘llanadigan badiiy san’atlardan biri.

N. ijodida “ko‘b va xo‘b” qo‘llangan she’riy san’atlardan biri M. hisoblanadi. Shoir tasvir jarayonida ba’zida u yoki bu narsa-hodisaning asl va tabiiy holatini kattalashtirib yoki kichraytirib oladi, ya’ni ta’rifni haddan tashqari yuksakka ko‘taradi yoki nihoyatda yerga urib yuboradi. “Bu xil tasvirda, – A.Hojiahmedov yozganidek, – badiiy timsol xususiyatlari yaqqolroq namoyon bo‘ladi”. Bu usul M. deb atalib, uning uch turi farqlanadi. Agar shoirning ushbu da’vosi aql-u odatga muvofiq bo‘lsa, bunday M. maqbul hisoblanadi va tablig‘ deyiladi. Agar da’vo aqlga sig‘sa-yu, odatdan tashqari bo‘lsa, ig‘roq deb ataladi. Agar da’vo odatdan tashqari bo‘lib, aqlga ham sig‘masa, g‘uluv deb nomlanadi. G‘uluv haddan o‘tmoq ma’nosini bildiradi. Shoir ijodida M.ning barcha turlariga duch kelish mumkin. Chunonchi, u sevgilimni kutib, tong otguncha kiprigimga uyqu qo‘nmadi, desa, bu M.ga hamma ham ishonadi:

Kecha kelgumdur debon ul sarvi
gulro‘ kelmadi,
Ko‘zlarimg‘a kecha tong otquncha
uyqu kelmadi.

Bu M.ning tablig‘ turiga misol bo‘la oladi.

Lekin shoir ushbu hijron kechasini nogahon tush ko‘rsam, uning dahshatidan zahram (o‘t pufagim) yorilib o‘lgan bo‘lar edim, der ekan, bu da’vo aqlga sig‘sa ham, odatdan tashqari. Demak, bu ig‘roq hisoblanadi:

Ushbu hijron kechasin tush ko‘rsam
erdi nogahon,
O‘lgay erdim vahmdin, albatta,
zahram yorilib.

Shoir ijodida M.ning g‘uluv turi ko‘proq uchraydi:

Sarsari ohim esar g‘am shomi hijron tog‘ig‘a,
Yaxshidur tong otqucha bu tog‘ homun bo‘lmasa.

Maz.: G‘am shomida ohim dahshatli dovulga aylanib, hijron tog‘i sari esyapti – bu tog‘ tonggacha tep-tekis bo‘lib, yalang sahroga aylanmasa yaxshi edi.

Oshiq ohining dahshatli dovulga aylanishiyu tog‘ni yemirib, sahroga aylantirishi odatdan tashqari hodisa bo‘lib, aqlga ham to‘g‘ri kelmaydi. N. esa bunday “dahshatli” M.larni sevib qo‘llaydi. Shoirning o‘nlab baytlarida dard tog‘ni sahro-yu sahroni dengizga aylantirishi haqidagi mubolag‘alar bir-birini to‘ldirgan, rivojlantirgan, yangi qirralarini ochgan va izohlagan tarzda namoyon bo‘lganini ko‘ramiz.

Tog‘ni dasht qilib, dashtni tog‘ ayladi dardim.

Yoki:

G‘amim xayli tuz etti tog‘ni, tog‘ etti sahroni,
Bu homun birla tog‘ erdiki, bo‘lmish tog‘ ila homun.

Maz.: G‘amim qo‘shini tog‘ni sahro, sahroni tog‘ etdi – bu sahro-yu tog‘ edi, endi tog‘-u sahro bo‘ldi.

Ad.: *Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик, 3-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011; Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға. “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2002, № 5; Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъу-с-санойиъ (А.Рустамов тарж.). – Т., 1981; Зеҳний Т. Санъати сухан. – Д., 1967; Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т., 2006; Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Т., 2001; Ҳожиаҳмедов А. Шеър санъатларини биласизми? – Т., 2001; Очилов Э. Навоий ижодида муболаға санъати. Алишер Навоий мероси ва унинг таълим-тарбиядаги ўрни. – Навоий, 2013; Алишер Навоий: Қомусий луғат. 1–2-жилдлар. – Т., 2016;*

E.O.

MUBRIM GADOLAR − N.ning “M.Q.” asari “Avvalg‘i qism”i 34-faslidan o‘rin olgan bo‘lim “Mubrim gadolar zikrida” deb nomlanib, M.G.ga bag‘ishlangan. Mubrim – shilqim, orsiz ma’nosida bo‘lib, N. bu toifani keskin tanqid ostiga olgan. Asarda ularga ajratilgan bo‘limda garchi qisqa bo‘lsa-da, ammo xarakterli chizgilari, jumladan, ularning xulq-atvori, yurish-turishlaridan tortib jamiyatda yetkazadigan zararlarigacha bayon qilingan. N.ning fikricha, bu toifaning ko‘pi beg‘ayrat, ishyoqmas, behayo bo‘lib, kunduzlari qistash, zo‘rlik b-n eldan tilanmoq bo‘lsa, kechasi esa o‘g‘rilarga qo‘shilib, xalqning mol-mulki, qo‘lga ilinadigan davlatlariga ko‘z soluvchi, ne’matga shukr qilmaydigan kishilardir. Shoir ularning boshlaridagi kachkul bangilarning turli xayollar b-n, ko‘tarib yuradigan to‘rvalari esa riyokor so‘fiylar fikridek turli rang, bir necha tusdagi xavotir b-n to‘lgan, deya ohorli tashbeh qo‘llaydi. Shuningdek, harfiy san’atdan ham unumli foydalanib, M.G.ning ko‘zlarini “Hirs” so‘zidagi “sod”ga va “tama’” so‘zidagi “ayn”ga qiyoslash b-n bu guruhning nechog‘li beandisha ekanligini ko‘rsatadi. Hatto “ayiq va to‘ng‘iz ulardan yaxshi bo‘lib, o‘zlariga “qalandar” deb ham ot qo‘ygan ushbu mal’unlarga dev va shaytonlar ham ergashadi” mazmunidagi mubolag‘ali tasvir XV asrda Hirotdagi ijtimoiy voqelikning asl ko‘rinishidir.

Bermak bo‘lmas alarg‘a inson hukmi,
Yo odam-u mo‘min-u musulmon hukmi.

Fosid axlotig‘aki vojibdur daf’,
Bo‘lg‘aymu kishi beray desa jon hukmi.

Shoirning M.G.ga bag‘ishlab yozilgan to‘rtligida bu ifoda yanada yorqin manzaralashtirilgan bo‘lib, ularni odam ham, inson ham, mo‘min-u musulmon ham deb bo‘lmaydi, deya g‘oyat keskin munosabat bildiradiki, bu holat asarning umumiy ruhida yetakchilik qiluvchi tanqidni yana bir bor dalillaydi. Zero, asarda asos e’tibori b-n turli ijtimoiy tabaqalarning jamiyatda tutgan o‘rni va vazifasi haqida, o‘z burchiga, to‘g‘ri, halol munosabatda bo‘lish kerakligi haqida so‘z yuritilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. Ўгирувчи: Баҳодир Қобул. – Т., 2021.*

S.O‘.

MUVOZANA (ar. − vazndoshlik) − bayt misralaridagi so‘zlarning bir-biriga nisbatan vazndosh bo‘lishiga asoslangan lafziy san’at. Bunda birinchi misradagi barcha so‘zlar ikkinchi misradagi o‘z muqobillariga vazn jihatdan teng bo‘ladi. Ular o‘zaro qofiyadosh bo‘lishi shart emas. Holbuki, tarse’ san’atida ularning qofiyadosh bo‘lishi talab qilinadi.

Ohang jihatdan uyg‘unlik M. san’ati asosida yaratilgan baytning ravon va jarangdor chiqishini ta’minlaydi. M-n:

Devonalig‘im nechukki majnun,
Sargashtaligim nechukki gardun.

Bu yerda “devonaligim” va “sargashtaligim” so‘zlari o‘zaro qofiya emas, lekin vaznda teng.

Yoki:

Lola qadahini toshqa urdung,
Lola guharini boshqa urdung.

Quyidagi baytda esa ham tarse’, ham M.ga misol bo‘la oladi:

Kun yuzini aylading mushakkal,
Tun ko‘zini aylading mukahhal.

Ad.: *Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Т., 2006; Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2010.*

E.O.

MUDBIR – lug‘aviy ma’nosi baxtsiz, ishi yurishmagan.

Mudbiri toptuk Navoiyni salomatdin yiroq
Ko‘rkim, ul ne nav’u ne yanglig‘ jahonda shuhrati.

N. ijodida (aksariyat holda) “mudbir” johil, ba’dfe’l, kaltabin ma’nolarini ham o‘ziga jamlab, ramziy obraz darajasiga ko‘tariladi hamda “S.S.”, “L.T.”, “M.Q.” kabi qator asarlarida hikoyatlar salbiy personajining nomi bo‘lib keladi.

“H.A.”dagi mana bu baytda “mudbir”, “baxtiyor” so‘zining ziddi sifatida talqin etiladi:

Bo‘lsa kishi mudbir agar baxtiyor
O‘ziga bu amrda ne ixtiyor!

Ad.: *Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

A.A.

MUDBIR, MUQBIL – “M.Q.” asarining “Tavozu’ va adab zikrida” deb nomlangan oltinchi bobida tavozu’ va xushadab sohiblarning el hurmat-e’tiboriga erishib, qadr-qimmat topishi va aksincha, mutakabbir va xudpisand kishilarning xor-u zor bo‘lishiga misol tariqasida keltirilgan mustaqil syujetli nasriy hikoyat personajlari. Xalq ertaklari ruhida yozilgan bu hikoyatda bayon qilinishicha, Xusrav Parvez ovdan qaytgach, tojiga qadalgan yirik durning yo‘qolgani ma’lum bo‘ladi. Qiymati bir mamlakatning yillik xirojiga teng keladigan durni topgan kishiga ko‘p in’om-u mukofotlar va’da qilinadi, butun xaloyiq uni axtarishga chiqadi”. ...Ittifoqo, ikki hamroh – biri g‘ofil va biri ogoh. G‘ofil – jahl yuzidin xudpisand, ogoh-tavozu’ va adab zevaridin arjumand. Birining ismi Mudbiri jahongard va birining oti Muqbili javonmard. Ul biyobondag‘i yo‘lg‘a ozim va shahr sari borurg‘a jozim, chun dur talab elga yovushtilar, ul xalqni boshlab chiqqon kishiga yo‘luqushtilar”. Mudbir takabburlik b-n mensimay “unga boqmay o‘tti”, Muqbil esa adab va tavozu’ b-n unga salom berayotib, yerdagi durga ko‘zi tushadi va olib beradi. Darhol bu xushxabarni shohga yetkazadilar. Muqbilga va’dadan ham “ortuq ehson” qilinadi. Hikoyatning yakuni ham xuddi xalq ertaklarini eslatadi, yomonliq, badfe’llik jazolanadi, yaxshilik, xushaxloq e’zozlanadi: “Mudbir takabbur natijasidin shahar gulxanida maqom tutub, Muqbil adab va tavozu’ foydasidin gavhari maqsud topib shoh gulshanida orom topdi”. Chin insoniy fazilatlarni ulug‘lovchi bu hikoyat N.ning saj’ san’atidan katta mahorat b-n foydalanganiga ham yorqin dalil bo‘ladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

A.A.

MUDDAIY I – lug‘aviy ma’nosi “da’vogar”. N. asarlarida ikki ma’noda qo‘llangan. Ilmiy munozara, mubohasada qarama-qarshi tomon, opponent. Shu ma’noni bildiruvchi atama sifatida muddaiy “M.L.”da qo‘llanilgan. Risola muallif davridagi jamiyatning, ilmiy-adabiy doiralarning ongida turkiy til haqidagi stereotiplarni o‘zgarti-

rish, rad etish maqsadini ko‘zda tutganligi sababli unda munozaraviy ruh, polemik pafos mavjud.

Ma’lumki, munozara, polemika o‘ziga xos ohangni, ifodani, uslubni talab qiladi. Bundan tashqari polemika uchun muallifning o‘zi yetarli emas, qarshi tomon ham bo‘lishi kerak. “M.L.”-da ana shunday tomon – opponent bor. Opponentga nisbatan N. “muddoiy”, “xasm” so‘zlarini qo‘llaydi. Bundan tashqari N. “Forsiygo‘y turk beklar” haqida ham yozadi va ular ham opponentga, ya’ni, muddaiyga yaqin turadilar. Muallif o‘z ilmiy kuzatishlari, qarashlari va xulosalarini bayon qilish asnosida doimo muddoiyni nazarda tutadi, uning mantig‘ini hisobga oladi, unga hech qanday imkon qoldirmaslikka, uni munozarada to‘liq yengish, N.ning o‘z so‘zlari bilan aytganda, “ilzom qilish”ga intiladi. U hatto muddaiy tomonidan bildirilishi mumkin bo‘lgan e’tirozlarni ham hisobga oladi va ularga oldindan javob beradi. M-n, o‘zining forsiy va turkiy tillar haqidagi mulohazalari tab’ining turkiy tilga moyilligi hamda fors tili va uning xususiyatlarini yaxshi bilmasligi tufayli yuzaga kelgan, degan e’tirozlarga o‘rin qoldirmaslik u-n u ushbu masalaga maxsus to‘xtaladi:

“Bu so‘zlardin xasm mundoq bilmasun va muddaiy mundoq gumon qilmasunkim, mening tab’im turk alfozig‘a muloyim tushgan uchun ta’rifida mubolag‘a izhor qilurmen va forsiy iboratqa munosabatim ozroq uchun inkor va nafyig‘a isror ko‘rguzurmenkim, forsiy alfoz istifosin va istiqsosin kishi mendin ko‘proq qilmaydur erkin va saloh va fasodin mendin yaxshiroq bilmaydur erkin”.

N. bu borada keng va atroflicha izoh beradi. O‘zining fors tili va adabiyoti bo‘yicha ulkan bilimlari, forsiy she’rdagi mahorati barcha tomonidan tan olinganini, binobarin, turkiy va forsiyni qiyoslash, ularning u yoki bu jihatlari haqida mulohaza yuritishiga ma’naviy haqqi borligini, bunda hech qanday e’tirozga o‘rin yo‘qligini ta’kidlaydi.

Ad.: *Алишер Навоий Муҳокамат ул-луғатайн. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Навоий асарлари учун қиқача луғат. – Т., 1993.*

Q.E.

MUDDAIY II – Qozi yoki vakolatli mansabdor huzurida ko‘riladigan ishlarda qarshi tomon. N. “M.N.”da Mavlono Olim zikrida uning devonboshiga “qoziyayi arz” bilan murojaat qilgani haqida yozadi. O‘z muddaosiga muvofiq yozma ariza ham bitgan. Mavlono Olimning ishini ko‘pincha devonboshi muboshirga, ya’ni Majdiddin Muhammadga topshiradi. Xoja Majdiddin uning arizasini hatto o‘qib ham ko‘rmaydi, chunki uning ko‘ngli “Muddaiylar”, ya’ni qarshi tomonga moyil edi. “Ammo Xojagiyning xotiri aning muddaiylari sori erdi, – deb yozadi Navoiy, – aning qag‘ozin o‘qumay chirmadi va g‘animlari tarafin tushti”. Mavlono Olim bu haqda bir bayt aytgan va N.ning yozishicha, u mashhur bo‘lib ketgan:

Kori maro Xoja Majdiddin Muhammad hech kard.

Tarj.: Xoja Majdiddin Muhammad bizning izimizni yo‘qqa chiqardi. O‘sha kuni qog‘ozimizni o‘qib ham ko‘rmay, bukladi qo‘ydi.

Ad.: *Алишер Навоий Муҳокамат ул-луғатайн. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011. Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Навоий асарлари учун қиқача луғат. – Т., 1993.*

Q.E.

MUJRIM OBID (XVIII asrning 2-yarmi – XIX asrning 1-choragi, Vobkent) – zullisonayn shoir. Buxoro adabiy muhitining zabardast vakillaridan biri hisoblanadi. U zullisonayn shoir bo‘lib, ham turkiy, ham forsiyda qalam tebratgan. Turkiy ijodida N. va Mashrab, forsiy she’rlarida Bedilga izdoshlik qilgan M.O. o‘zbek mumtoz so‘z san’ati tarixida alohida o‘rin tutadi.

M.O. XIX asrning boshlariga qadar faqat “Mujrim” taxallusini qo‘llagan. Devoni debochasida ma’lumot berishiga qaraganda, Amir

Haydarning tavsiyasi b-n “Obid” taxallusini olgan. Bir qator she’rlarida ikkala taxallus ham ishlatilgan. Ba’zi bir she’rlaridagi ma’lumotlarga qaraganda, shoir hayotining qarilik davri ancha og‘ir kechgan.

Amir Haydar muhtojlikda kun kechirayotgan shoirga (yordam qilish o‘rniga) shoirlikni tark etib, qalandarlik b-n mashg‘ul bo‘lishni tavsiya etadi. Og‘ir moddiy va ma’naviy azob iskanjasida qolgan shoir o‘zining cheksiz iztiroblarini shunday bayon qiladi:

Na Obidlig‘da masruram, na Mujrilig‘da mahjuram;
Chu tole’ yor yo‘q, miqdor yo‘qdur shuncha nomimg‘a.

Uning o‘zbekcha she’rlarini qamrab olgan debochali devoni (ikkita nusxasi) hamda forsiy devoni mavjud.

M.O. devonida g‘azal asosiy o‘rin tutsa-da, muxammas, ruboiy, qit’a va kichik masnaviylar ham mavjud.

M.O.ning N. an’analariga yuksak hurmat, ijodiy munosabati uning taxmislarida yanada ochiqroq ko‘rinadi. Uning forsiy taxmislari Bedil, o‘zbekcha muxammaslari esa N. g‘azallariga bog‘langan.

M.O. taxmis uchun tanlagan g‘azallarining ruhi ham shoirning og‘ir hayotiy kechinmalari b-n hamohang tushganligidan dalolat qiladi.

N.ning “Yer yuzini tutti ashkim, ko‘k yuzini nolishim, yuqori Tengrim, quyi sendin o‘zga yo‘q kishim”, “Ko‘ngul jon birla bo‘ldi hamrahing, man dard-la o‘lturdim” deb boshlanuvchi g‘azallari ana shunday ruhda.

N.ning “Topmadim” radifli mashhur g‘azaliga qilingan taxmisning ayrim bandlari misolida ham M.ning bu boradagi mahorati haqida ma’lum tasavvur hosil qilish mumkin:

Olami foniyda kulfatsiz makone topmadim,
Fayri anduh-u, g‘am-u oh-u fig‘one topmadim,
Bir anisishoz-u g‘am, shirin zabone topmadim,
Mehr ko‘p ko‘rguzdim, ammo mehribone topmadim,
Jon base qildim fido, orome jone topmadim.

M.O. taxminan XIX asrning o‘ttizinchi yillarida sakson yoshlarda vafot etgan.

Ad.: *Мужрим Обид. Ғазаллар. – Т., 1960; Ўзбек адабиёти тарихи, XV том. – Т., 1978.*

S.G‘.

MUJTASS (ar. – yulinish; yulib olingan, ildizi b-n yulingan; hafif bahridan yulib olingani u-n shunday atalgan) – mustaf’ilun (3-hijo qisqa, qolganlari cho‘ziq – – – V –) va foilotun (2-hijo qisqa, qolganlari cho‘ziq – – V – –) asllarining takroridan hosil bo‘lgan bahr (mustaf’ilun foilotun mustaf’ilun foilotun – – – V – / – V – – / – – V – / – V – –). XIV asrdan o‘zbek adabiyotida keng qo‘llanadi. Hofiz Xorazmiy, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy kabi shoirlar ijodida o‘zbek tili xususiyatlariga mos uning oldingi 3 rukni maxbun ko‘rinishida 2–3 vazni qo‘llanilgan.

N. esa M.ning o‘zbek she’riyatidagi imkoniyatlarini yanada kengaytirib, 5 ta vaznidan foydalandi. “X.M.”dagi 3132 ta she’rdan 348 tasi (11 foiz) ayni bahrning turli vaznlarida ijod qilingani ham shoir she’riyatida M. bahri qanchalik o‘rin tutishini ko‘rsatib turadi.

N. “M.A.”da M. bahrining 9 vaznini misollari b-n keltiradi. Bobur esa “Muxtasar” asarida uning 21 vazniga to‘xtalib o‘tadi.

M. bahriga xos xususiyatlardan biri ko‘p vaznlilik bo‘lib, she’riyatimizda keng qo‘llanilgan ushbu bahrga mansub 4 vazn o‘zaro yaqin bo‘lib, ular bir she’rning o‘zida birgalikda qo‘llanaveradi. Xilma-xil vaznlarning o‘zaro o‘rin almashishi natijasida she’rning jarangdorligi, o‘ynoqiligi va jozibasi ortadi. M-n, N. M. bahridagi 52 g‘azali 2, 138 g‘azali 3, 91 g‘azali 4 vazn ishtirokida yaratilgan. Jumladan, quyidagi

matla’li g‘azalda mujtassi musammani maxbuni mahzuf, maxbuni maqsur, maqbuni maqtu’ va maxbuni maqtu’i musabbag‘ vaznlari o‘rin almashib keladi:

G‘amingda buzdi ko‘ngul xonumonini hijron,
Tarahhum aylamading xonumoning obodon.

M. bahri vaznlarida bitilgan g‘azallar “Shashmaqom”ning “Iroq”, “Saraxbori Iroq” kuylari, shuningdek, “Bayoti Sheroziy” va boshqa ko‘plab xalq kuylari b-n ijro etilgan. M-n, “Ushshoq” kuyi b-n ijro etiladigan N.ning mashhur “Qaro ko‘zum” g‘azali ham mujtassi musammani maxbuni maqtu’ vaznida yozilgan:

Qaro ko‘zum, kel-u mardumlig‘ emdi fan qilg‘il,
Ko‘zum qarosida mardum kibi vatan qilg‘il.

Ad.: *Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Бобур. Мухтасар. – Т., 1971; Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т., 1998; Ҳожиаҳмедов А. Навоий арузи нафосати. – Т., 2006; Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – T., 2019.*

E.O.

MUZAFFAR MIRZO (1473, Hirot – 1508, Astrobod) – Sulton Husayn Boyqaroning uchinchi o‘g‘li. Shoh G‘arib mirzo b-n bir onadan, ya’ni Xadichabegimdan tug‘ilgan. Shahzodalar ichida ota-onasining erkatoyi hisoblangan. 1497-y.da Husayn Boyqaro Astrobod viloyatini Badiuzzamon mirzodan olib, M.M.ga bergan va bu ko‘p nizolarga sabab bo‘lgan. Otasidan keyin qisqa muddat Badiuzzamon mirzo b-n sheriklikda davlatni boshqargan (1506). Shayboniyxondan yengilib, Astrobodga qochgan (1507). O‘sha yerda kasal bo‘lib, vafot etgan (1508).

Ma’lumki, N. Husayn Boyqaro farzandlarining ma’rifatli, bilimdon, odil, xalqparvar hukmdorlar bo‘lib yetishishlarini istagan va shu maqsadda ularga yo‘llanmalar berib, nasihatlar qilgan. Uning M.M. borasidagi ana shunday tilak va nasihatlari “S.I.” dostonining 84- va 85-boblarida o‘zining badiiy ifodasini topgan. Odatga ko‘ra, N. avval shahzodani madh etadi:

Ota Shohi G‘ozi-yu ul nuri ayn,
Muzaffar Husayn ibni Sulton Husayn.

Taolalloh ajab zot erur,
Ki olamg‘a andin mubohot erur.

Zafarg‘a qarin farruh oti aning,
Bori aybdin pok zoti aning.

Dostonning 85-bobi to‘laligicha M.M.ga qaratilgan pand va nasihatlardan iborat. Bunda N. o‘ziga xos usuldan foydalanadi va nasihatlarni doston g‘oyasi va mazmuni b-n bog‘laydi. Iskandarning shuncha bilim va hikmatga ega ekanligiga qaramay, hamma vaqt donishmand allomalardan maslahat so‘ragani va ularning so‘zlariga amal qilganini bayon etar ekan, N. bu o‘rinda ana shu donishmandlarning so‘zlarini shahzodaga yetkazishini aytadi va ular mirzoga naf va foyda yetkazishiga umid qiladi:

Necha so‘z alardin bayon aylagum,
Ne maxfiysi bo‘lsa, ayon aylagum.

Umid ulki, sen ham qilib istimo’,
Senga dog‘i naf’ aylag‘ay ul mato’.

Dastlab N. Arastu fikrlarini bayon qiladi. “Biridur Arastu xiradnomasi, Ki tahrir etibdur aning xomasi” degan misralar b-n boshlanuvchi ushbu qismda olamning vafosizligi, uning bebaqoligi, faqat Haqning boqiyligini ulug‘lovchi, Tangrini yod etish, xaloyiqqa yaxshilik qilishga chorlovchi fikrlar ifodalangan.

N.ning mashhur:

Xaloyiqqa ko‘rma qilib benavo,
O‘zungga ravo ko‘rmaganni ravo, –

bayti ham mana shu qismdan o‘rin olgan.

“Falotun so‘zidurki, ey sarfaroz, Haq etmish seni xalqdin beniyoz” baytidan boshlab, Aflotunga nisbat berilgan dono fikrlar bayon etiladi. Shu tariqa bobning keyingi qismlarida Suqrot, Fisog‘urs, Asqalinus, Hurmus va nihoyat Iskandarning o‘ziga tegishli hisoblangan hikmatli so‘z va nasihatlar misralar zimniga jo qilinadi. Bobning oxiridan esa bevosita muallifning shahzodaga murojaat va nasihati o‘rin olgan. Bunda N. ikki narsani alohida ta’kidlaydi: shariat ahkomlariga rioya etish hamda ota-ona xizmatini qilish. N.ning M.M.ni ko‘zda tutib yozgan misralari “S.S.” dostoning 10-bobida ham mavjud.

Xadichabegim madhiga bag‘ishlangan mazkur bobda muallif malikani ulug‘lab, vasf etar ekan, uning ikki farzandini ham tilga oladi:

Oy-u kun yo‘q agar monanding.
Ikki sa’d axtar ikki farzanding.

N. “M.”ida M.M.ning o‘g‘il ko‘rgani munosabati b-n tahniyat sifatida yozilgan bir maktub ham bor. Unda N. M.M.ni farzandi tug‘ilgani munosabati b-n tabriklab, shunday yozadi:

Dahrg‘a bersun mudom maqdamidin zeb-u zayn,
Shoh Muhammad Bade’ ibni Muzaffar Husayn.

Bundan yangi tug‘ilgan shahzodaga Muhammad Bade’ deb ism qo‘yilgani ma’lum bo‘ladi. Maktubda ezgu tilak va duolar ifodalangan bir qit’a, bir ruboiy va yana bir bayt ham bor.

N. ijodining M.M. tilga olingan yana bir namunasi “Soqiynoma” asaridir. Unda ulug‘ shoir boshqa shahzodalar qatorida M.M.ga ham baytlar bag‘ishlagan (jami 8 bayt) va so‘nggi baytda so‘z o‘yini vositasida uning otini zikr qilgan:

Har nekim komi muyassar bo‘lsun,
Barcha a’dog‘a muzaffar bo‘lsun.

M.M. haqida o‘sha davrga oid boshqa manbalarda, shu jumladan, Xondamir va Bobur asarlarida ham ma’lumotlar mavjud.

Ad.: *Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Соқийнома. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Муншаот. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

Q.E.

MUZD – ish haqi, xizmat haqi, to‘lov ma’nolarini bildiruvchi tarixiy-iqtisodiy atama. N. asarlari matnida ham shu ma’nolarda qo‘llangan. M-n, “F.Sh.” dostoni syujetiga ko‘ra, Farhod ranj-u mashaqqatlar b-n Armaniston dashtida “Nahrul-hayot” arig‘ini va “Bahrun-najot” hovuzini qazib bitiradi. Shunda malika Mehinbonu og‘irini yengil qilgan Farhodning ish haqi, xizmat haqiga yuz ganj to‘lasam ham kam, deya Shiringa shunday tushuntirish, izoh beradi:

Bu shaydovash yigitkim, chekti ko‘p ranj
Ki, muzdi dast anga bor erdi yuz ganj.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011.*

B.R.

MUZDAVAJ – Musarra’, ya’ni har bir misrasi qofiyalangan baytga asoslangan she’r M., deb ataladi va u izdivoj (juftlashmoq) san’atining sifatdoshi sanaladi.

N. lirik va epik asarlari M.ning ko‘plab namunalari b-n bezatilgan:

Har yerda bahor o‘lsa, chaman bo‘lsa kerak,
Har yerda chaman, gul-u suman bo‘lsa kerak.

Har qayda xazon bo‘lsa, tikan bo‘lsa kerak,
Har qayda tikan, ranj-u mihan bo‘lsa kerak.

Y.Is’hoqov izdivoj, ko‘pincha, qofiyadosh so‘zlarning yonma-yon emas, balki ma’lum masofada joylashishi natijasida hosil bo‘lib, “bilan, “aylasa” so‘zlarini izdivoj hosil qiluvchi lafzlardir, deydi:

Ko‘ngul uldurkim anga maskandurur,
Yo‘qsa gulshan bo‘lsakim gulxandurur.

Ad.: *Алишер Навоий. Бадойеъ ул-бидоя. Дебоча. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 1987; Ҳусайний А. Бадойеъ ус-санойеъ (Аруз вазни ва бадиий воситалар ҳақида). Форс тилидан А.Рустамов таржимаси. – Т., 1981; Шайх Аҳмад Тарозий. Фунун ул-балоға // Ўзбек тили ва адабиёти. 2002, № 4; 2003 йил, 1-3-сонлар.*

S.O‘.

MUZORAA (ar. − o‘xshash) − tovush o‘xshashligiga asoslangan lafziy san’at. U tazmini muzdavaj deb ham yuritiladi. Atoulloh Husayniyning yozishicha, unda “ikki yoki andin ortiq lafzni yonma-yon yoki bir-biriga yaqin qilib keltirurlarkim, alar tegishli harakat va harflarining e’tibori bilan qofiyada bir bo‘lurlar”. N. lirikasida ham M. namunalarini uchratish mumkin:

Shah yurub olam ochar, darvesh olamdin qochar,
Ham o‘zung insof bergilkim, bu ne nisbat anga.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик. 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик. 9-жилд. – Т., 2011; Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъ ус-санойиъ (А.Рустамов тарж.) Т., 1981. − Раҳмонов В. Шеър санъатлари. Т., 2001. Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Л., 1972.*

E.O.

MUZORE’ (ar. – o‘xshash) – mafoiylun (1-hijo qisqa, qolganlari cho‘ziq – V – – –) va foilotun (2-hijo qisqa, qolganlari cho‘ziq- – V – –) asllarining ketma-ket takrorlanib kelishidan hosil bo‘ladigan bahr (mafoiylun foilotun mafoiylun foilotun – V – – – / – V – – / V – – – / – V – –). Hazaj bahriga o‘xshashligi u-n shunday nomlangan. “M.A.”da uning 12, “Muxtasar”da 24 vazni haqida ma’lumot beriladi va ularning har biriga misollar keltiriladi. O‘zbek she’riyatida M. bahrining musamman shaklidagi 4 vaznidan keng foydalaniladi: M.i musammani axrab, M.i musammani axrabi musabbag‘, M.i musammani axrabi makfufi mahzuf, M.i musammani axrabi makfufi maqsur. Bu vaznlarning barchasi yoqimli ohangi, musiqiyligi b-n alohida ajralib turadi. M. bahri vaznlarida yozilgan she’rlar “Shashmaqom”ning “Saraxbori Buzruk”, “Talqinchai Iroq”, “Saraxbori Segoh” kabi 11 kuy, “Girya”, “Dugohi Husayn” kabi ko‘plab kuylarga mos tushadi.

M. bahri o‘zbek she’riyatida XIV asr boshlaridan qo‘llana boshlagan. Rabg‘uziy, Atoiy, Sakkokiy, Gadoiy, Lutfiy ijodida uning turli vaznlarida bitilgan namunalarni ko‘ramiz. N. bu bahrning turli vaznlarida 75 g‘azal, shuningdek, qit’a, muammo va fardlar yozgan. M-n, quyidagi matla’li g‘azali M.i musammani axrab vaznida:

Bir qatla bo‘lsa erdi ul gul’uzor oshiq,
Bo‘lg‘aymu erdi muncha ollida xor oshiq.
– – V / – V – – / – – V / – V – –

Quyidagi matla’li g‘azali esa M.i musammani axrabi makfufi mahzuf vaznida:

Ko‘nglum harimi ichra qilur jilva ul pari,
Andoqki Ka’ba ichra haramning kabutari.

maf’u(v)lu foilotu mafoiylu foilun
– – V / – V – – / V – – V / – V –

Ad.: *Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Бобур. Мухтасар. – Т., 1971; Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. –Т., 1998; Ҳожиаҳмедов А. Навоий арузи нафосати. – Т., 2006; Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – T., 2019.*

An.H., E.O.

MUIN VOIZ (XV asr oxiri – XVI asr boshi, Hirot) – N. davridagi Hirotning fozillaridan. Zamonning taniqli kishilaridan bo‘lgan

Mavlono Hoji Muhammad Farohiyning o‘g‘li. Hirotda yashab ijod qilsa-da, kelib chiqishi Farohdan bo‘lgani u-n Farohiy taxallusi b-n ham qalam tebratgan. Tahsilini yakunlab, Hirotga kelganidan keyin N.ning do‘st-u yaqinlari safidan joy olgan. “M.N.”da keltirilishicha, M.V. tengsiz voiz bo‘lib, shogirdlari ko‘p bo‘lgan. U shunday ta’sirli ma’ruza o‘qiganki, ba’zilar hayajondan hushdan ketganlar. Minbar ustiga devonalarcha qo‘l tashlab, yerni ko‘p tepgan, o‘zini Muin devona deb ta’bir qilgan, har xil baland-u past so‘zlar aytgan. O‘zining telbaligiga iqror bo‘lganligi u-n har qanday so‘z aytsa ham ma’zurdir, deydi N. akasi Mavlono Nizomiddin: “Bizning Muin serqirra iste’dod sohibi edi, bu yog‘och zinapoya (ya’ni minbar) uning barcha qobiliyatlarini zoye qildi”, – lutf etgan ekan. Nima bo‘lganda ham, shaharning muqarrar voizi Mavlono Voizdir. Juma kunlari shahar jome’ masjidida, ikki hayitda iydgohda u va’z aytadi, deb so‘zini yakunlaydi N. va uning ta’bi nazmidan bir matla’ keltiradi:

Magar fasli bahor omad, ki olam sabz-u xurram shud,
Magar vasli nigor omad, ki dil bo vasl hamdam shud.

Tarj.: Bahor fasli keldimikan, olam yashnab, xurram bo‘ldi. Yor diydori muyassar bo‘ldimikan, dil vasl b-n hamdam bo‘ldi.

She’rlarida vazn, qofiya va radifga hamisha ham rioya qilmagan. Lekin ular teran ma’no va nozik badiiy san’atlarga boy. Asosan, qasida, g‘azal, qit’a va ruboiy janrlarida ijod qilgan.

Zuhd-u ibodati va din-u diyonati b-n mashhur bo‘lgan. Amir-amaldorlarning ostonasini ham hatlamagan, ulardan biror tuhfa ham olmagan. Birgina N.ning yordam-u in’omlarini mamnuniyat b-n qabul qilib, hamisha uning duoyi jonini qilgan. Umrining oxirida akasining o‘rnida qozilik qilgan. Donishmand olim sifatida qator risolalar yozgan.

“Me’roj ul-nubuvvat” (“Payg‘ambarlik me’roji”), “Tafsiri Fotihat” (“Fotiha” surasi tafsiri”), “Qissai Yusuf alayhissalom”, “Anis ul-voizin” (“Voizlarning do‘stlari”), “Mazomini g‘arroyi ma’naviyati jome’” (“Ma’naviyat haqida jami fikrlarning yorqin mazmunlari”), “Iboroti musajja’ va mukaffo” (“Saj’ va qofiyali iboralar”) risolalari shular jumlasidandir.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Тарихи Рашидий. – Т., 2010; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 2. – Душанбе, 1989.*

E.O.

MUKARRAR (ar. − takrorlangan) − so‘zning yondosh takroriga asoslangan lafziy san’at. Bunda muayyan so‘z yoki tushunchaga urg‘u berish maqsadida ular yonma-yon qo‘llanib, orasiga chiziqcha qo‘yiladi. M. san’ati takrordan shu jihati b-n farqlanadi.

N. M. san’atidan juda ko‘p istifoda etgan. Shoir o‘quvchi diqqatini muayyan so‘zga, uning mohiyatiga qaratish maqsadida mazkur san’atga murojaat qiladi:

Bor erdi chu kirdim anda bebok,
Olam-olam javohiri pok.

Baxt ayttikim, etak, qo‘yun och,
Shah boshi uza ovuch-ovuch soch.

Atoulloh Husayniy M.i malih va M.i qabih deb mazkur san’atni ikki guruhga bo‘ladi. Agar takror so‘z yonma-yon qo‘llansa, M.i malih joyiga tushmasa, M.i qabih bo‘ladi.

Ad.: *Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға. “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2002, № 5; Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Т., 2001; Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2010.*

M.X.

MULAMMA' (ar. − yarqiroq, rang-barang) − bir baytni ikki yoki uch tilda yozish. "Shayx Ahmad Taroziyning yozishicha: "Bu san'at aningtek bo'lurkim, she'ra ayturlarkim, bir misra bir til birla bo'lur, bir misrasi yana bir til bilan". Ba'zan butun boshli she'r shunday yozilgan. M-n, Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro"sida N.ga bag'ishlangan bir qasida bo'lib, boshdan-oyoq uning bir bayti o'zbek tilida, bir bayti fors-tojikcha:

Mazhari davlat Alisher, ulki sheri
Haq erur,
Har maorikda aning fathu saodat yovari.

On chun, k-az maqdami sayyid shuda
Yasrib aziz,
Gasht dorulfazli olam az vujudi o' Hari.

Tarj.: Muhammad (s.a.v.) qadami tufayli Madina aziz-u mukarram bo'lgani singari, Navoiyning muruvvat-u saxovat uyg'unlashgan faoliyati sababli Hirot ham olamning dorulfazliga aylandi.

Sharq mumtoz she'riyatida asosan arab va fors, arab va o'zbek, o'zbek va fors, arab va ozarbayjon tillarida bayt-u g'azallar bitganlar. M.ning ikki tildan foydalanilgan shakli shir-u shakar, uch tilda bo'lsa, shahd-u shir-u shakar deb yuritilgan. N. ijodida M.ning arab va o'zbek, o'zbek va arab tillaridagi shakli uchraydi. M-n, "X.M."ning ilk g'azalining birinchi bayti arab va o'zbek tillarida:

Ashraqat min aksi shamsil ka'si anvor ul-Xudo,
"Yor aksin mayda ko'r" deb, jomdin chiqdi sado.

Arabcha misraning mazmuni: "May kosasining quyoshi aksidan haqiqat yo'lining nurlari porladi". Bu yerda may kosasidan maqsad ishq bo'lib, ya'ni joziba manbai Yaratuvchining o'zidir.

Yoki:

Ul koni malohatda demon bor edi bir on,
Lav tanzur fi husnihi-l-on kamo kon.
Juz Navoiy borig'a jomi karomat tuttung,
Ayyuhas-soqiy, min al-ka'si fano ayn ul-alo.

Navoiy, Ka'ba zikrin qo'yki, biz dayri
fano istab,
Zahabno vodiyal-maqsad, vajadno
mo huval-maqsud.

Ad.: *Алишер Навоий. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилд. – Т., 2001; Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Т., 2001; Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2010; Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға. Ўзбек тили ва адабиёти, 2002. № 6.*

E.O.

MULK ISHI – N. o'z asarlari matnida mahorat b-n qo'llagan ibora, mamlakat, yurt, davlat, podshohlikni boshqarish kabi ma'nolarda ishlatgan. "X."da N. "mulk ishi"ga "ko'ngil ishi" poetik iborasini qarama-qarshi qo'yadi va "ko'ngil ishi"ga berilgan shoh "mulk ishi"dagi sobitlik, ogohlikdan chekinadi, M.I.ni qisman bo'lsa-da, barbod qiladi, degan fikrlari isboti uchun "Aql-u dini bor, g'amda toqati, baloda tamkin bor" shoh Bahrom obrazi misolida ishonchli bayon qiladi. Diloromdan ayrilgan shoh Bahrom ko'ngil ishi bois, M.I. – mamlakat, davlat boshqaruvini tashlab qo'yadi, bu holatni N. "Yig'lag'u yo'qki, kulgu yanglish ish" deb baholaydi va shunday yozadi:

Taxt ila mulk yodidin ketti,
Vaxshdek dasht aro maqom etti.

"S.I."da esa N. kordon shoh Doroning Iskandarga mensimay aytgan xulosalarida bu g'oyani qisqa va ta'sirli tarzda ko'rsatishga harakat qiladi. Aslida, bu ham N. nasihati va nazariyasi, ijtimoiy fikrlarining poetik talqinidir:

Budurkim ko'ringay sanga ko'zga ish,
Va lekin erur mulk ishi o'zga ish.

Koshifiy ham “Axloqi Muhsiniy” asarining Adolat bayonida nomli 15-bobida adl va adolatning fayzi barakasi haqida ijtimoiy fikrlarini bayon qilar ekan, mulk ishi iborasini mahorat b-n qo‘llagan:

Mamlakat asli adolat birla bo‘lmish poydor,
Mulk ishi ham shohlarg‘a adldin topqay qaror.

Ad.: *Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10-жилд, 7-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Ҳ.В.Кошифий. Ахлоқий Муҳсиний. – Т., 2010.*

B.R.

MULLO ABDUSHSHAHIDBEK IBN MULLO MAHMUDBEK – Buxoro xattotlik (XIX asr) maktabi vakili. N.ning “L.T.” va “M.Q.”ning 15 safar oyi 1272–73/ 28-oktyabr 1855-57-yy., oliy navli Qo‘qon qog‘ozi, Buxoroda chiroyli nasta’liq xatida ko‘chirib bir jildda jamlagan.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик. 9-жилд. – Т., 2011; Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. –Т., 1991; МунировҚ., Носиров А. Алишер Навоий қўлёзма асарлари каталоги. – Т., 1970.*

Muh.A.

MULLO ABDURRASUL – XIX asr boshlari Buxoro xattotlik maktabi vakili, nasx va nasta’liq xatida yozgan. “X.” va “L.T.”ni birgalikda ko‘chirgan. Buxoroda 1216–1801-yy.da aniq va ravon nasta’liq xatida Qo‘qon qog‘ozida kitobat qilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик. 6-8 жилдлар. – Т., 2011; Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. –Т., 1991; МунировҚ., Носиров А. Алишер Навоий қўлёзма асарлари каталоги. – Т., 1970.*

Muh.A.

MULLO AZIZ IBN MULLO JORUB – Nasta’liq va nasx xatida yozgan. “X.”ni oddiy Qo‘qon qog‘ozida ko‘chirgan. Toshkent: ShQM. Qo‘lyozma 406-raqam ostida saqlanib, 292 varaqdan iborat. Qo‘lyozmaning oxiri (“S.I.” dostoni)dan ikki-uch varaq yo‘qolib ketganligi sababli kitobat sanasi va joyi aniq emas, kitobning qog‘ozi, muqovasi va boshqa belgilariga qarab, kotib XVIII asrda Farg‘ona vodiysida yashagan, deb taxmin qilish mumkin.

Ad.: *Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. –Т., 1991.*

Muh.A.

MULKORO – 1. N.ning “F.Sh.” dostonidagi obraz, Xoqonning vaziri. Dostonda mazkur obraz o‘z hukmdoriga sodiq, tadbirkor a’yon sifatida tasvirlangan. U Farhodning otabegi bo‘lgan va uni o‘z farzandidek ko‘rgan. Xoqon Farhod u-n to‘rt qasr bunyod qilishga qaror berganda, bu ishni Mulkoroga topshiradi. Mulkoro Boniy, Moniy, Qoran singari me’mor, naqqosh, toshkesarlarni to‘plab, shohning maqsadini tushuntiradi. Shundan so‘ng qasrlar qurish u-n lozim bo‘lgan qurilish ashyolarini tayyor qilib, to‘rt qasr u-n to‘rt ishboshi tayinlaydi va mingta ishchini ularning ixtiyoriga beradi. Shu tariqa M.ning sa’y-harakatlari, ustalar va ishchilarning mehnatlari b-n to‘rt faslga moslashtirilgan to‘rt go‘zal qasr bunyod etiladi. M. donishmand vazir, davlat arbobi bo‘lish b-n bir qatorda samimiy, o‘zgalarning dardlari va intilishlarini tushunadigan inson. Shu sababli ham Farhod Yunon mamlakatiga borishga ahd qilganda, bu qarorini dastlab pinhoniy tarzda M.ga aytadi. Farhodning azmi qat’iy ekanligini anglagan M. unga pand-nasihat qilib o‘tirmaydi va ahvolni yotig‘i b-n Xoqonga tushuntiradi. Xoqon va M. maslahatlashib, Farhod b-n Yunon mulkiga borishga qaror qiladilar. M. ning vazir sifatidagi qiyofasini chizar ekan, N., eng avvalo, uning mamlakatni obod qilishdagi xizmatini qayd etadi:

Bor erdi ollida farxunda dastur,
Mamolik ra'yidin obod-u ma'mur.

Topib oroyish andin mulk-u ziynat,
Tutub el ichra Mulkorog'a shuhrat.

Ko'rinadiki, bu ibora talqinida N.ning davlat arbobi sifatida vazir qanday bo'lishi lozimligi haqidagi qarashlari o'z aksini topgan.

2. "F.Sh." dostonidagi ramz. Dostonning muqaddima qismidagi ikkinchi bobda N. Yaratuvchi hamdini bayon qilar ekan, buni o'ziga hos usulda amalga oshiradi. Mazkur bobda doston qahramonlari, personajlari nomlaridan ramzlar sifatida foydalanilgan. Unda Farhod, Suqrot, Sheruya, Shopur singari obrazlar nomi b-n bir qatorda M. nomi ham badiy ramz funksiyasini bajaradi:

Badan mulkin qilib alqissa ma'mur,
Vaziri aql Mulkorosi ma'mur.

Bu o'rinda M. aql timsoli bo'lib, shu tushunchani tajassum etadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Ўзбек адабиёти тарихи. 5 жилдлик, 2-жилд. – Т., 1977; Эркинов С. Навоийнинг "Фарҳод ва Ширин"и ва унинг қиёсий таҳлили. – Т.,1971.*

Q.E.

"MUMTOZ SO'Z BAHSI" – matnshunos olim Vahob Rahmonovning matnshunoslikka doir ilmiy tadqiqotlarini o'zida jamlagan maqolalar to'plami. Kitobda matnshunoslikning nazariy qoidalariga qisman, amaliy tahliliga ko'proq o'rin ajratilib, N., Bobur, Ogahiy, Muqimiy, Furqat asarlari nashrlari b-n bog'liq masalalar yoritilgan. Vahob Rahmonov mumtoz asarlarni nashrga tayyorlagan P.Shamsiyev, H.Sulaymonov, A.Rustamov, S.G'aniyevalar b-n bahsga kirishadi, misollar orqali dalillab, asl matnni tiklashda e'tibor qaratish lozim bo'lgan muhim nuqtalar borasida ma'lumot beradi. To'plamda N. asarlari nashrlariga ham katta o'rin ajratilgan (52 – 370 betlar). Jumladan, "Mumtoz adabiyotimizning eng muhtasham qasri", "Matn tafovutlari va asliyat haqiqati", "Matn sahihligi bahsi", "Navoiy modern", "Navoiyning eng so'nggi so'zlari", "Hamid Sulaymonning hayqirig'i", "So'z g'alat, imlo g'alat, lug'at g'alat, ma'no g'alat", "Alisher Navoiy muhabbat o'rog'i" singari 21 ta maqola to'liq N. asarlaridagi matniy nuqsonlarni ochib berishga qaratilgan. Olim matnshunoslik borasida amalga oshirilgan ishlarni taftish qiladi, asarni nashrga tayyorlashda ilmiy-tanqidiy matndan foydalanish, bugun lotin va kirill alifbosida nashr etilgan kitoblarni lug'at asosida qayta o'qib chiqish zarurligi, matnshunoslar oldida turgan vazifalarni nazariy jihatdan yoritadi. N. asarlarining turli yillarda chiqqan nashrlaridagi kamchiliklarni tahlil qiladi.

Ad.: *Раҳмонов Ваҳоб. Мумтоз сўз баҳси. – Т., 2022.*

S.O'., O.T.

MUMTOZ MATNLAR TRANSLITRATSIYASI – N.ning "M.L." asarida mumtoz o'zbek tilidagi unlilar, ularning fonologik xususiyatlari haqida noyob ma'lumotlar saqlangan. Asardagi misollardan ko'rinadiki, o'zbek tilida o'nta unli bo'lib, ular bir-biridan uzun-qisqaligi b-n farqlangan. Tilning keyingi taraqqiyotida bu juft unlilar birlashib, bir fonemaga aylangan, ya'ni konvergensiya ro'y bergan. Quyida har bir juft unlini alohida-alohida tahlil qilamiz.

1. ***a:*** **~** ***a.*** N.ning yozishicha, mumtoz o'zbek tilida ikkita ***a*** unlisi bo'lib, ular bir-biridan uzun-qisqalik b-n farq qilgan. Cho'ziq a: alif (ا), qisqa ***a*** hoyi havvaz (ە) b-n ifodalangan. Shoir ma'lumotlariga qaraganda XV asrga kelib cho'ziq ***a****:* da fonematik, ya'ni ma'no ajratish xususiyati yo'qolib, qisqa ***a*** ga variant bo'lib qolgan."M.L."da bu haqda shunday yozilgan: "Ul jumladin biri, alif (ا) bila ho (ە) orasida munosabat va musho-rakat beribdurlarki, bir lafzni ham oxiri alif lafz bila qofiya qilsa bo'lur. Andoqki, ارا -*ara:* lafzin

ارس -*sara:* (saroy) va ارد -*dara:* (qo‘ng‘iroq) bila qofiya qilsa bo‘lur, ەرس -sara (toza) va ەرد – dara (vodiy) bila ham qofiya qilsa bo‘lur”. Ushbu iqtibosdan ko‘rinib turibdiki, shoir cho‘ziq ***a:*** da ma’no ajratish xususiyati yo‘qolganligi sababli tarkibida bu unli bo‘lgan so‘zlarni qisqa unlili, ya’ni hoyi havvazli so‘zlarga qofiya qilinishi mumkinligi haqida ma’lumot bermoqda. Alifni hoyi havvazga variant ekanligi Mirza Mahdixon tomonidan ham ta’kidlangan. Olim “Maboni ul-lug‘at” asarida yozadi: “Har bir alif hoyi havvaz bilan almashishi mumkin: alinda (alif bilan) va alinda (hoyi havvaz) bilan, yanimg‘a (alif bilan) va yanimg‘a (hoyi havvaz bilan) kabi. Keyinchalik o‘zbek tili tovush tizimi taraqqiyotida bu ikki unli birlashib bir fonemaga aylangan, ya’ni konvergensiyaga uchragan. Shu sababli alifli so‘z ham hoyi havvazli so‘z ham lug‘atlarda yagona ***a*** harfi b-n yoziladigan bo‘ldi.

2. ***i:*** ~ ***i.*** I fonemalari haqida shoir “M.L.”-da ikki joyda ma’lumot beradi. Birinchsi yoy (ى) va kasra (ـِ) izohida fonematik xususiyatini yo‘qotgan cho‘ziq ***i:*** va qisqa ***i*** haqida ma’lumot berib, shunday yozadi: “Va yo bila kasra orasida dag‘i bu nav’dur, andoqki ىرآغ -*a:g‘i:r* (og‘ir) va ىرغاب -*ba:g‘i:r* (jigar) alfozin رداص - *sa:dir* (voqelangan) va رداق -*qa:dir* (qudratli) alfozi bila qofiya qilsa bo‘lur, ىرخ ات -*ta:xi:r* (sekin) va ىرىغت -*tag‘yi:r* (o‘zgarish) alfozi bila ham bo‘lurki, forsiy alfozda bu suhulatlar (imkoniyatlar) yo‘qtur”. Ushbu iqtibosda tarkibida cho‘ziq ***i:*** li *a:g‘i:r* va *ba:g‘i:r* so‘zlari qisqa ***i*** li *sa:dir* va *qa:-dir*, shuningdek tarkibida cho‘ziq ***i:*** li *ta:xi:r* va *tag‘yi:r* so‘zlariga qofiya bo‘la olishi ta’kidlangan. Demak, XV asrga kelib cho‘ziq ***i:*** da ma’no ajratish xususiyati yo‘qolgani tufayli u qisqa ***i*** ga tenglashib, variant bo‘lib qolgan. Bu unlilar ham tilimiz taraqqiyotida birlashib oddiy ***i*** ga aylangan, ya’ni konvergensiyaga uchragan. Shu sababli lug‘atlarda cho‘ziq ***i:*** va qisqa ***i*** li so‘zlar oddiy ***i*** harfi b-n yozilmoqda. Shoir fonematik xususiyatni saqlab qolgan cho‘ziq ***i:*** haqida زىب so‘zlari izohida ma’lumot berib shunday yozadi: “Va ya:yi misol uch harakatdin ortuq topilmas: زىب -bez ki sart “kadud” der, va زىب -biz ki “mo” va “nahnu” ma’nisi biladur va زىب -bi:z ki “darafsh” derlar”. Ko‘rinadiki, “M.L.”da shoir uchta ***i*** unlisi haqida ma’lumot bergan: birinchisi cho‘ziq ***i:*** (bi:z) fonemasi, ikkinchisi fonologik ahamiyatni yo‘qotgan cho‘ziq ***i:*** va uchinchisi qisqa ***i.*** Ushbu iqtibosda “darafsh” ya’ni bi:z (bigiz) so‘zida cho‘ziq ***i:*** ishlatilganligi haqida muhim ma’lumot bor. Arab yozuvida ushbu cho‘ziq ***i:*** ni ko‘rsatish mushkul. Ammo mumtoz lug‘atlarda maxsus *ishbo’-cho‘ziq* atamasi orqali ko‘rsatilgan. Chunonchi “Badoye’ ul-lug‘at” tuzuvchisi Toli Hiraviy نىق so‘zi izohida ushbu kalima ishbo’siz qin (pichoqning qini) i*shbo’* b-n ya’ni cho‘ziq ***i:*** b-n *qi:n* (qiyin) ma’nolarini beradi deb quyidagi misolni keltiradi:

Osib nechun fig‘ona soldi zulfidan ko‘ngullarni,
Qaror-u sabr naqdin olg‘ali gar aylamas qi:nlar.

Darhaqiqat نىق so‘zi qi:n (qiyin) bo‘lganida azob ma’nosini beradi. Mumtoz o‘zbek tilidagi cho‘ziq *i:* fonemasi til taraqqiyoti iy diftongiga aylangan. Bu diftong *kiyik, qiyin, tiyin, biyik, deyin* kabi so‘zlar tarkibida saqlanib qolgan. Shoir asarlari nashrida yuqoridagi so‘z qin shaklida buzib yozilmoqda:

Yordin ayru may ichmak qindurur balkim og‘u,
Xoh og‘izda talx su, xohi burunda sho‘r su.

So‘zni bunday shaklda yozganda birinchi misrani izohlash mushkul. Faqat *qi:n* (qiyin) shaklida ma’no aniq bo‘ladi: yordan ayri may ichmak qiyin, u og‘uga o‘xshaydi.

3. ***u:*** ~ ***u.*** “M.L” da mumtoz o‘zbek tilida to‘rtta lablangan u unlisi haqida ma’lumot berilgan. Shoir birinchi juft u ni vov (و) va zamma (-ُ), ikkinchi juft unlini تاو so‘zlari misolida ko‘rsatgan.

a) Avval vov (و) va zamma (-ُ) orqali ko‘rsatilgan unlilar haqida to‘xtalamiz. Shoir vov orqali cho‘ziq ***u:*** zamma orqali qisqa u unlisi haqida shunday yozadi: “Va vov bila zamma

orasida ham ul nav’ shirkatdur. Andoqki روریا – *eru:r* lafzin رُح -hur (ozodlik) va رُد *-dur* (gavhar) lafzi bila qofiya qilsa bo‘lur, رورغ - *g‘uru:r* (mag‘rur) va رورض - *zaru:r* (kerakli) lafzi bila ham joyizdur”. Ushbu misollarda vov, ya’ni cho‘ziq ***u:*** li *eru:r* so‘zi zamma, ya’ni qisqa ***u*** li hur va dur so‘zlariga qofiya qilinishi haqida ma’lumot berilgan. Demak, vovda cho‘ziqlik belgisi yo‘qolganligi sababli u zamma ya’ni qisqa ***u*** li so‘zlarga qofiya bo‘la olishi ko‘rsatilgan. Bu misol vovda cho‘ziqlik belgisi yo‘qolganligi sababli, ***u*** qisqa ***u*** ga tenglashib qolganligi haqida ma’lumot beradi. Keyinchalik tilimiz taraqqiyotida bu ikkala u birlashib konvergensiya, ya’ni bir fonemaga aylangan. Shu sababli vovli so‘zlar ham zammali so‘zlar ham lug‘atlarda bir u unlisi b-n yoziladigan bo‘ldi.

b) Endi ikkinchi juft lablangan unlilari haqida to‘xtalamiz. Bu unlilar shoir tomonidan توا so‘zlari misolida izohlangan: “ توا – muqammirg‘a burd jihatidin amr va توا ki baridin ariq harakatdur, kallani o‘tga tutup tukin aritur ma’nidadur”. Ushbu iqtibosga diqqat qilib, unda izohlangan so‘zni turkman tiliga qiyoslasak, birinchi “muqammirg‘a burd jihatidin amr” da ya’ni qimor o‘ynovchiga yutmoq uchun buyruqda oddiy ***u*** ishlatilganligini ko‘ramiz. Turkman tili fikrimizni tasdiqlaydi: utmak “vыigrыvat”. Qirg‘izcha ut “vыgrat” ham shoir fikrining to‘g‘riligini ko‘rsatadi.

Ikkinchi توا da, ya’ni kallani o‘tga tutup tukin ariturda qisqa u ishlatilgan. Turkman tilida ham bu so‘z qisqa ***u*** b-n yozilgan: ɣtmek “opalit”.

N. ko‘rsatib o‘tgan bu ikki unli adabiy tilimizda ishlatilmaydi, faqat shevalarda saqlanib qolgan: utmoq – o‘tga tutib junini tozalamoq.

4. ***e:*** ~ ***e.*** Shoir ko‘rsatilgan asarida ikki ***e*** unlisi haqida ham qimmatli ma’lumotlar qoldirgan. “M.L.”dan: “ریٓ ki, termak ma’nisi biladur. ریٓ ki andin, daqiqdur, uldurki, sartlar oni “araq” va “xey” derlar”. Ushbu iqtibosga diqqat qilinsa, unda ikkita ***e*** unlisi haqidagi ma’lumotga ega bo‘lamiz. Qadimgi manbalar birinchi ریٓ *-te:rda* cho‘ziq ***e:*** ikkinchi ریٓ terda oddiy ***e*** ishlatilganligini ko‘rsatadi. Uzun-qisqalikda farqlangan bu ***e*** unlilari tilimiz taraqqiyotida konvergensiyaga uchrab, bir fonemaga aylangan. Shu sababli yuqoridagi so‘zlar lug‘atlarda bir ***e*** fonemasi b-n yoziladi.

5. ***o‘:*** ~ ***o‘.*** “M.L.” ma’lumotlari mumtoz o‘zbek tilida to‘rtta ***o‘*** bo‘lganligidan darak beradi. Ular bir-birlaridan daqiq-qisqalik b-n farqlangan: “روت ki domdur, yana روت ki, andin daqiqroqdurki: qush o‘lturur yig‘ochdur...”. Ushbu iqtibosdan ko‘rinib turibdiki. birinchi *to‘:r* ya’ni tuzoqda eng cho‘ziq ***o‘:*** ishlatilgan, ikkinchi *to‘:r* ya’ni qush o‘tiradigan yog‘ochda undan qisqaroq cho‘ziq ***o‘:,*** uchinchi *to‘:r* ya’ni uyning to‘rida uchinchi darajali cho‘ziq ***o‘:*** va nihoyat to‘rtinchi *to‘:r* ya’ni eshikka tutiladigan *to‘:r*da oddiy cho‘ziq ***o‘:*** ishlatilgan.

Ushbu to‘rt cho‘ziq ***o‘:*** unli tilimiz taraqqiyotida quyidagi o‘zgarishlarga uchragan. Birinchidan, to‘rttala cho‘ziq ***o‘:*** da cho‘ziqlik belgisi yo‘qolgan. Ikkinchidan, tuzoq ma’nosidagi to‘rdagi ***o‘*** unlisi gazmol ma’nosidagi *to‘r* dagi ***o‘*** unlisi b-n birlashib konvergensiyaga uchragan. Qush o‘lturur ma’nosidagi to‘r adabiy tilda ishlatilmasligi sababli uning tarkibidagi ***o‘*** fonemasi arxaiklashgan. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida gazmol va hurmatli o‘rin ma’nosidagi so‘zlar tarkibidagi ***o‘*** unlilari saqlanib qolgan.

Biz shu vaqtgacha mumtoz o‘zbek tilidagi matnlarni ***ä, ö, ы, i, ï*** kabi belgilar b-n yozib keldik. Vaholanki, N.ning “M.L.” asarida mumtoz o‘zbek tilidagi so‘zlar qanday transliteratsiya qilinishi kerakligi haqida noyob ma’lumotlar saqlangan.

N. zukko tilshunos sifatida XV asrga kelib unlilarda uzun-qisqalik oppozitsiyasi yo‘qolganligini ko‘rsatib berdi (mumtoz o‘zbek tili fonetikasida inqilob yasadi). U alif orqali ifodalanuvchi cho‘ziq ***a:*** da ma’no ajratish xususiyati yo‘qolganligi sababli hoyi havvoz b-n ifodalanuvchi qisqa ***a*** ga, vov orqali ifodalanuvchi cho‘ziq ***u:*** da fonematik xususiyat yo‘qolganligi sababli zamma orqali ifodalanuvchi qisqa ***u*** ga, yoy orqali ifodalanuvchi cho‘ziq ***i:*** da ma’no ajratish

xususiyati yo‘qolganligi sababli kasra orqali ifodalanuvchi qisqa ***i*** ga tenglashib qolganligi haqida g‘oyat qimmatli ma’lumot qoldirgan.

Shoirning bu ma’lumotlari cho‘ziq unlilarda ma’no ajratish xususiyati yo‘qolganligi sababli ular oddiy unliga tenglashib qolganligini ko‘rsatadi. Bu esa mumtoz o‘zbek tili yodgorliklarini oddiy ***a, i, u, o‘, e*** unlilari b-n transliteratsiya qilish mumkinligidan darak beradi. N.ning bu ma’lumotlari mumtoz o‘zbek tilini sodda o‘qitish mumkinligidan tashqari hozirgi o‘zbek tili vokalizmi qanday shakllanganligi haqida qimmatli ma’lumotlar beradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Боровков А.К. Бадаи ал-луғат. Словарь Тали Имани Гератского. – М., 1961; Туркменско-русский словарь. – М., 1968; Киргизско-русский словарь. – Москва, 1965; Туркменско-русский словарь. – М., 1968; Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4 томлик. Том 2. – М., 1981; Щербак А.М. Сравнительная фонетика тюркских языков. – Л., 1970; Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Том 2. – М., 1981.*

E.U.

MUMTOZ O‘ZBEK TILIDAGI TO‘RT “O‘” TOVUSHI – N. “M.L.”da mumtoz o‘zbek tilidagi unlilar bir-biridan uzun-qisqalik b-n farqlanishini daqiq – qisqa atamasi orqali shunday ifodalaydi: “to‘rki, domdur yana to‘rki andin daqiqroqdurki: qush o‘lturur yig‘ochdur va to‘rki, andin daqiqroqdur: uyning to‘ridur va to‘rki, barchadin ariqdur: to‘rlug‘ni yo eshikni to‘rmak uydur”. Shoir ma’lumotlari XI asr tilshunosi Mahmud Koshg‘ariy ma’lumotlari b-n hamohang. Lug‘atchi uyning to‘ri ma’nosidagi *to‘:r* so‘zida cho‘ziq ***o‘:*** ishlatilganligini ta’kidlash u-n yoniga ishmom, tuzoq ma’nosidagi *to‘:r* so‘zida undan ham cho‘ziqroq ***o‘:*** mavjud ekanligini ko‘rsatish u-n ishbo’ atamasini qo‘yadi. Ko‘rinib turibdiki, eng uzun ***o‘:*** ni Mahmud Koshg‘ariy ishmom, undan qisqarog‘ini ishbo’, N. esa daqiq termini orqali ko‘rsatgan. “M.L.”-dan olingan ushbu iqtibosdan ko‘rinib turibdiki, shoir o‘zbek tilida to‘rtta ***o‘*** fonemasi borligini ta’kidlamoqda. Ular ayrim olimlar yozganidek, bir-biridan qattiqlik-yumshoqlik b-n farqlanmayapti. Sababi, bu unlilarning hammasi bir xil pozitsiya ***t*** va ***r*** undoshlari qurshovida turibdi. Ularning birini qattiq, ikkinchisini yumshoq deyish u-n lingvistik asos yo‘q. Endi bu to‘rt unlini adabiy tilda, o‘zbek shevalarida va nihoyat, qirg‘iz, qozoq va turkman lug‘atlarida berilishiga to‘xtalamiz. O‘zbek adabiy tilida bu to‘rt unlidan uchtasi ishlatiladi, faqat tildagi iqtisod qonuniga muvofiq ularda cho‘ziqlik belgisi yo‘qolgan.

To‘r I – tabiiy yoki sun’iy toladan katak-katak ko‘zli yoxud bejamdor qilib to‘qilgan gazmol;

To‘r II – poygakdagi joyga nisbatan yuqoridagi joy, hurmatli o‘rin;

To‘r III – baliq tutadigan yoki qush ovlaydigan setka shaklidagi asbob; matrap.

Qush o‘lturur yog‘och ma’nosidagi to‘r adabiy tilda uchramaydi, faqat Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalarida saqlanib qolgan. O‘zbek shevalarida unlilardagi cho‘ziqlik saqlangan: tor (to‘r) – baliq tutadigan uskuna, ***tөr (to‘r)*** – uyning to‘ri. Qirg‘iz, qozoq, qoraqalpoq va turkman tillarida ham cho‘ziqlik saqlangan. Qirg‘iz tilida ulardan biri ***o***, ikkinchisi ***ө*** fonemalari orqali ko‘rsatilib, ikki lug‘at maqolaga joylashtirilgan: tor “set”; төr “место против входа в юрту, почетное место”. Qozoq tilida ham ushbu holatni ko‘ramiz. Bu tilda ham cho‘ziqlik tufayli ular ikki lug‘at maqolada berilgan: *tor: tor jasau – ауыз –tuzoq, төr- үydің* qadirli sanalatын jog‘arg‘ы jag‘ы. Xuddi shunday holatni qoraqalpoq tilida ham ko‘ramiz: tor “setka”, “set”, төr- “почетное место”. Turkman tilida tө:r “pochetnoye mesto” cho‘ziqlik belgisi (:) b-n yozilgan, oddiy ***o‘, o*** fonemasi orqali ko‘rsatilgan: tor – “set”, “nevod”, “setka”.

Misollardan ko‘rinib turibdiki, qirg‘iz, qozoq va turkman tillaridagi ***o‘*** unlilari bir-biridan uzunqisqalik b-n farqlanmoqda. Yana qaytaramiz: N. unlilarni qattiq-yumshoqligiga qarab emas, balki uzun-qisqaligiga ko‘ra tasnif qilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Т., 1983; Махмуд ал-Кашкари. Диван луғат ат-турк. Таржимон, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Ауэзова. – Алматы, 2005; Содиқов Қ. Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилнинг юзага келиши ва тикланиши. – Т., 2006; Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Том 2. – Москва, 1981; Тўйчибоев Б. Ўзбек тилининг тараққиёт босқичлари. – Т., 1996; Киргизско-русский словарь. – Москва, 1965.*

E.U.

“MUNDOQ MUQATTAOTKIM, MEN YIG‘MISHAM, ERUR...” – N.ning “F.K.” devoniga kiritilgan qit’a:

Mundoq muqattaotkim, men yig‘misham, erur
Har bir hadiqayi xirad aylar chun farog‘.

Majmuin o‘yla kishvari anglaki, sathini
Hikmat suyidin aylamisham qit’a-qit’a bog‘.

“Biz yolg‘ondan qalbi munofiq, jonli ziddiyatdan o‘zga hech nima emasmiz. Biz o‘z-o‘zimizdan yashirinamiz. O‘zimiz o‘zimizga niqob to‘qiymiz”, – degan edi Blez Paskal. Agar diqqat qilinsa, N. hazratlari ham aksariyat qit’alarini ana shunday beshafqat fikrlar talqiniga bag‘ishlagan. Inson yolg‘onlardan poklanib, nodonlikda o‘zni ovutish va jaholatga ko‘nikishdan xalos bo‘lmas ekan, u tuban ziddiyatlar mujassamiga aylanib qolaveradi. O‘z-o‘zingdan bekinma! Asl mohiyatingni angla! Ko‘nglingga niqob tortma! Bu da’vatlar shoir qit’alaridagi yuzlab satrlardan baralla eshitilib turadi. Hazrat N. hamisha haqiqatni yozganlar.

Ad.: *Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011; Ҳаққул И. Касби камол ўзни танишдир. – Т., 2021.*

I.H.

MUNZIR IBN AMR – Sulaymon (a.s.) qissasidagi personaj. U “T.A.H.”dagi Sulaymon (a.s.) qissasining o‘ziga xosligini ko‘rsatuvchi dalillardan biri sifatida diqqatga sazovor. Ma’lumki, payg‘ambarlar haqidagi qissalar N.ga qadar mavjud bo‘lgan va keng tarqalgan. Ularning eng mashhuri Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asaridir va ushbu asarda yuqoridagi obraz mavjud emas.

N. asarida bayon qilinishicha, Sulaymon (a.s.) Hudhud orqali Bilqisga noma yuborganidan so‘ng Bilqis ikki oltin va ikki kumush g‘isht, bir muhrlangan durjni ham bir xil kiyintirilgan yuz qiz va yuz o‘g‘il bolani M.I.A.ga topshirgan va ularni Sulaymon (a.s.)ga yetkazishni buyurgan. U M.I.A.ga “Agar Sulaymon (a.s.) g‘ishtlarni olsa va senga bepisandlik bilan muomala qilsa, bilginki payg‘ambar emas, aksincha bo‘lsa, payg‘ambardir”, – degan. Bundan tashqari, uning payg‘ambarligiga ishonch hosil qilish u-n Sulaymon (a.s.) bir xil kiyingan bolalar ichidan o‘g‘illar va qizlarni ayirishi, huqqada nima borligini topishi kerakligini aytgan.

M.I.A. Sulaymon (a.s.) qoshiga borganda, u bepisandlik b-n emas, izzat-ikrom b-n kutib olgan, oltin va kumush g‘ishtlarni olmagan, durjning ichida nima borligini topgan, o‘g‘il va qiz bolalarni bir-biridan ayirgan. Shundan so‘ng M.I.A.ning ketishiga ruxsat berib, “Bilqisga ayt, imon qabul qilsin”, – degan.

N. “T.A.H.”da yuqoridagi voqealarni batafsil hikoya qilgan. U M.I.A.ni “aql va siyosatlig‘ kishi erdi” deb ta’riflaydi.

Rabg‘uziy o‘z asarida Bilqis tomonidan Sulaymon (a.s.)ga yuborgan narsalar va kishilarning nomlarini keltirgan: “Zuyug otlig‘ qozisini, Rofig‘ otlig‘ vazirini, Munzir otlig‘ hojibini bu mol birla Sulaymong‘a izdi”. Ko‘rib turganimizdek, yuborilgan kishilar orasida M.I.A. qayd etilmagan. Umuman, Rabg‘uziy qissasida bunday obraz yo‘q. Bu muhim adabiy dalil bo‘lib, N.ning boshqalar yozgan voqealarni takrorlash b-n cheklanmagani, payg‘ambarlar haqidagi qissalarga ijodiy yondashgani, o‘ziga xos, original qissalar yaratganini ko‘rsatadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Носириддин Бурҳониддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. – Т., 1991.*

Q.E.

MUNIROV Quvomiddin (1928–2012, Toshkent) – sharqshunos olim, tarix fanlari nomzodi (1961). 1949-y.da SAGU Sharq fakultetini tugatgan va O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida ishlagan. 1964-y.dan M.Q. shu institut qo‘lyozmalar fondining boshlig‘i va Qo‘lyozmalarni sharhlash va tartibga solish bo‘limining mudiri bo‘lgan.

M.Q. 10 ga yaqin kitob va 50 dan ortiq maqolalar muallifi. 1970-y.da “Alisher Navoiy qo‘lyozma asarlari katalogi”ni keksa manbashunos olim Abdulla Nosirov b-n nashr ettirgan. Mualliflar bergan ma’lumotga ko‘ra, O‘zR FA ShI fondida N.ning 150 ga yaqin xattot tomonidan ko‘chirilgan 450 dan ziyod qo‘lyozma va bosma asarlari saqlanmoqda”. “Bular orasida Alisher Navoiy hayot vaqtida Hirotda atoqli xattotlar tomonidan ko‘chirilgan devonlarning mo‘tabar nusxalari ham bor”.

Zarrin qalam xattotlar Sulton Ali Mashhadiy, Abduljamillar ko‘chirgan “N.N.”, Abduljamil ko‘chirgan “X.” nusxalari shular jumlasidandir. Bu katalogda mualliflarning so‘zboshilari, asosiy fondda saqlanayotgan 404 qo‘lyozma, bir necha dublet fonddan qo‘lyozmalar haqida ma’lumotlar berilgan va N.ning nashr etilgan (o‘zbek va rus tillaridagi) asarlari ro‘yxati hamda qo‘lyozmalardan ba’zi sahifalar surati ilova qilingan.

M.Q., shuningdek, Ogahiy ijodiyoti, Munis, Ogahiy va Bayoniylarning tarixiy asarlari yuzasidan tadqiqot olib borgan, risolalar e’lon qilgan.

Ad.: *Мунировв Қ. Хоразмда тарихнавислик. – Т., 2002.*

S.G‘.

MUNIS (To‘liq ismi: Shermuhammad Avazbiy o‘g‘li Munis (1778–1829, Xiva) – shoir, muarrix, tarjimon, xattot. Qiyot qishlog‘ida mirob oilasida dunyoga kelgan. Otasi Avazbiy saroyning bosh mirobi edi. U o‘z zamonining fozil kishilaridan bo‘lganligi u-n ham o‘g‘lining yaxshi bilim olishi u-n barcha shart-sharoitlarni yaratib beradi. Uning ta’lim-tarbiyasiga qo‘shnisi Sayideshonxo‘janing ham ta’siri kuchli bo‘lgan. M. unikiga kelib-ketadigan peshqadam ziyolilarning suhbatidan bahramand bo‘lar edi. M. boshlang‘ich savodini qishloq maktabida chiqarib, keyin madrasada tahsilni davom ettiradi. Sayideshonxo‘ja madrasada ham unga dars bergan. Arab va fors tillarini, Sharq adabiyotini chuqur o‘zlashtiradi. She’rlaridan ma’lum bo‘lishicha, u Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy, Hofiz Sheroziy, Sa’diy Sheroziy, Abulqosim Firdavsiy, Abdulloh Ansoriy, Farididdin Attor, Xoqoniy Shirvoniy, Abdurahmon Jomiy, Lutfiy, N., Fuzuliy, Mirzo Abdulqodir Bedil singari, deyarli, barcha zabardast namoyandalar ijodi b-n tanish bo‘lgan.

M. adabiyotga katta nazariy tayyorgarlik b-n kirib kelgan. Uning adabiyotga bo‘lgan havasini oshirishda, uni she’r mashq qilishga va ustoz so‘z san’atkorlari ijodini puxta o‘rganishga rag‘batlantirishda o‘sha zamonning Kiromiy, Ravnaq, Mavlono Nishotiy, Andalib kabi peshqadam va tajribali qalamkashlari muhim rol o‘ynagan edilar. M-n, Munis Mavlono Kiromiyning shoirlikda o‘ziga ustoz bo‘lganini bir she’rida quyidagicha bayon qilgan edi:

Tong emas, Munis, agar bo‘lsam kiromi qadrkim,
Ustodi zohir-u botin Kiromiydur mango...

Munis o‘z ijodida Ravnaqdan ham o‘rgangan.

Otasi 1800-y.da vafot etgach, o‘sha davrdagi Xiva xoni Avaz inoq M.ni saroy xizmatiga jalb etib, farmonnavis kotib qilib tayinlagan. 1806-y.da Muhammad Rahim I taxtni egallagach, unga miroblik unvonini beradi. Shu davrdan boshlab M. Xiva xonligi ishlarida ishtirok eta boshlaydi.

M. 1804-y.da o‘z she’rlarini to‘plab, ilk marta mo‘jaz bir devon tuzadi. 1815–1820-yy.da esa

6 ming bayt (12 ming misra)dan iborat mashhur “Munis ul-ushshoq” (“Oshiqlar do‘sti”) devonini tartib beradi. Unga shoirning g‘azal, mustazod, muxammas, musaddas, ruboiy, tuyuq janridagi she’rlari kiritilgan. “Shuaro”, “So‘z” radifli g‘azallari nihoyatda mashhur bo‘lib, ularda o‘sha davrdagi qalam ahlining ahvoli, ularga munosabatning qandayligi hassos misralarda haqqoniy yoritib berilgan. Shuningdek, devonga 1804-y. da yozgan xattotlikka oid “Savodi ta’lim” asari ham ilova qilingan. 2 qismdan iborat bu asarning 1-qismida xat mashq qilishga tayyorgarlik ko‘rish va yozuv u-n zarur narsalar, 2-qismida esa xat mashqi va uning usullari haqida o‘z tajribalari asosida keng ma’lumot beriladi.

Muarrix sifatida 1806-y.da Xiva tarixiga oid “Firdavs ul-iqbol” (“Iqbol bog‘i”) nomli tarixiy asar yozishga kirishadi. Lekin 1812-y.gacha bo‘lgan voqealarni yozishgagina ulguradi. U ijodi ayni gullagan davrda vabo kasalidan vafot etadi. M.ning bevaqt o‘limi tufayli chala qolgan asarni uning jiyani – mashhur shoir va muarrix Muhammad Rizo Ogahiy davom ettiradi va nihoyasiga yetkazadi. 5 bobdan iborat bu asar nafaqat Xorazm, balki qardosh turkman, qozoq va qoraqalpoq xalqlari tarixini o‘rganishda ham muhim manbalardan biri hisoblanadi. M., 1819-y.da mashhur muarrix Mirxondning 7 jilddan iborat “Ravzat us-safo” (“Soflik bog‘i”) nomli tarixiy asari tarjimasiga kirishgan. Lekin 1-jildi va 2-jildining yarmini tarjima qilib ulguradi. Keyin uni ham Ogahiy nihoyasiga yetkazadi.

M. Xorazmning sug‘orish inshootlari va yersuv munosabatlariga bag‘ishlangan “Arnalar” (arna − ariq, kanal) degan asar ham yozgan. U mohir xattot sifatida N.ning “M.A.” (1794) va “H.S.H.A.” (1797), “S.S.” (1798–99) asarlarini, XIX asr shoiri Roqim devonini kitobat qilgan.

M.ning N. shaxsi va bebaho merosiga qanchalik ixlos-e’tiqodi borligi devonidagi she’rlaridan yaqqol ko‘rinib turadi. U o‘zining bu buyuk salafidan fikrni go‘zal va ta’sirchan ifodalash, ohorli va betakror tashbeh-u timsollar b-n she’riga sayqal berish, so‘zni zargarday tanlab ishlatish, ravon va jarangdor misralar tizish sirlarini o‘rganadi. N. an’analarini yangi sharoitda davom ettirib, rivojlantirgan M. ko‘plab bayt-u misralarida o‘zining N. ruhidan madad topgani, N. ta’sirida ijod qilgani, ijod yo‘lida N.ni o‘ziga rahnamo, deb bilgani haqida to‘lib-toshib yozadi. M-n, ruboiylaridan birida shunday yozadi:

So‘z ichra Navoiyki jahongirdurur,
Munisg‘a maoniy yo‘lida pirdurur.

Yo‘q g‘ayriyat andin o‘zgakim ayturlar:
Bu – Shermuhammad, ul – Alisherdurur!

M., devonidagi ilk g‘azaldayoq o‘zining she’riyatdagi ustozlari kimlar ekani, kimlarning asarlaridan o‘qib ta’sirlangani, kimlarni ijod yo‘lida o‘ziga ustoz deb bilishini ko‘rsatib o‘tganida, o‘ziga xos qat’iyat va ishonch b-n bu yo‘lda to ulug‘ N. ruhi menga homiy ekan, hasadgo‘ylarning bo‘lar-bo‘lmas gap-so‘zlariga parvo ham qilmayman, deb yozadi:

Qilsa hosid daxli bejo so‘z aro yo‘qtur g‘amim –
Kim, bu ma’nida Navoiy ruhi homi(y)dur manga.

V.Abdullayev M.ning o‘zining buyuk salafidan o‘rganishi va ta’sirlanishi asosan 2 yo‘nalishda kechganligini ta’kidlaydi: shoir g‘azallariga muxammaslar bog‘lash va naziralar yozish. Bunga yana uning navoiyona ruh va ohangdagi bayt-u g‘azallarini, “Firdavs ul-iqbol” (“Iqbol bog‘i”) nomli tarixiy asaridagi navoiyona zachinlar va masnaviy parchalarini ham qo‘shish mumkin. Binobarin, N.ning M.ga ta’sirini quyidagi yo‘nalishlardan o‘rganish mumkin:

– M.ning N. g‘azallariga tatabbu’lari;
– buyuk salafi g‘azallariga muxammaslari;
– shoir ijodida navoiyona ohanglar;
– “Firdavs ul-iqbol”dagi navoiyona zachinlar va masnaviy parchalari.

M. N.ning “Hiloliya” qasidasidan ilhomlanib, uning ta’sirida tatabbu’ o‘laroq bitgan “Iyd” qasidasida “Men Navoiyga tatabbu’ qilishga

jur'at etib, uning himmatini istab sahifa uzra qalam surdim – uni o'qigan kishi donishmand shoir ta'sirida unga monand misralar ijod qilganimni his etadi", – deb lutf aylagan edi:

Jur'ate aylab, Navoiyg'a tatabbu' ayladim,
Safha uzra xoma surdim istab oning himmatin.

Matla'ye qildim xayol ul nav'kim, fikr aylagan
Fahm qilg'usi nazokat ichra oning diqqatin.

M. buyuk salafining "Ko'nglim", "Edim", "Qilmading", "Yo'q", "Qilmangiz", "Hanuz", "Umid", "Aylagach", "Aylab", "Ekin oyo", "Fido", "Ollida", "Sanga", "O't" radifli g'azallariga tatabbu'lar qilgan. Shuningdek, "Vahki, ko'nglum mahvasheg'a mubtalo bo'ldi yana", "Ichib tutsa manga may gar nigori bodaoshomim", "Ey xayoli qomating jon gulshanida sarvinoz", "O'lturg'ali oshiqni qarodur sanga to ko'z", "Xilvate bo'lmas muyassar yor ila ag'yorsiz" misralari b-n boshlanadigan g'azallari ham bevosita N.ga tatabbu'dir. M-n:

Vahki, ko'nglum mahvasheg'a
mubtalo bo'ldi yana,
Charxdin har dam nasibim yuz balo
bo'ldi yana, –

bayti b-n boshlanadigan g'azali N.ning mashhur "Ko'rgali husningni zor-u mubtalo bo'ldum senga" misrasi b-n boshlanadigan g'azaliga tatabbu' ekanligi ko'rinib turibdi.

Tiyrahol o'lmoq ishimdur chehra
pinhon aylagach,
Ko'zgudek hayratzada, ammo,
namoyon aylagach, –

matla'li g'azali esa salafining yana bir "Husni ortar yuzda zulfin anbarafshon aylagach" nomli g'azaliga tatabbu'dir.

M. N.ga tatabbu' qilib "Ollida" radifli 2 ta g'azal yozadi-da, so'ng "keynida" radifi b-n ham 2 g'azal ijod qiladi. Bu g'azallar ham o'zining ohorliligi b-n o'quvchini o'ziga tortadi. Ayni hol N.Jumaxo'janing "Nazira va muxammaslar yozish original g'azal yaratish yo'lidagi o'ziga xos mashq, tayyorgarlik vazifasini o'tagan", - degan fikri haqligini ko'rsatadi.

M. qator g'azal va ruboiylarida fikrini N.ga xos tarzda ifodalaydi, baytlarini N.ga o'xshab shakllantiradi, buyuk salafining muayyan mushohadalarini rivojlantirib, ularning yangi qirralarini ochadi, tashbehlarining yangi ma'no qatlamlarini kashf etadi, bir so'z b-n, aytganda, navoiyona ohangda bayt-u g'azallar ijod qiladi.

N.ning ma'shuqaning kemada Amudaryo ichra sayr etishi tasviri b-n bog'liq go'zal tashbehlar asosiga qurilgan betakror g'azali mavjud. Jumladan, g'azal matla'sida san'atkor shoir Amudaryoda kemada sayr etayotgan malakni tole yulduzini bag'riga bosgancha, falak uzra aylanib yurgan yarim oyga tashbeh etadi:

Zavraq ichra ul quyosh sayr aylamas Jayhun aro,
Axtari sa'de hilol ichra kezar gardun aro.

M. bu bayt ta'sirida o'ziga xos ohorli tashbeh yaratadi – Amudaryo uzra suzayotgan kemada tabassum qilib, atrofni kuzatayotgan ma'shuqani osmondagi yarim oy ustida porlab turgan yulduzga qiyoslaydi.

Jilva aylar dilbarim zavraqda Jayhun ustida,
Yo munir axtar yangi oy uzra gardun ustida.

M. yana N.ga ergashib, salmoqli g'azallar yozadi. Uning g'azallari, asosan, 8, 9, 10, 11, 12 baytli g'azallardir.

Sharq she'riyatida shunday mavzular borki, ular turli shoirlar tomonidan davom ettirilib, yangidan yangi qirralari ochilgan. Shulardan biri asli nasli buzuqning tarbiya b-n tuzuk bo'lmasligi haqida. Inson tabiati ustida bosh qotirgan, inson tarbiyasi u-n jon kuydirgan dunyo donishmandlarining aksariyati oxir-oqibat insonning tug'ma tabiatini o'zgartirib bo'lmasligi, u "yaratilganicha qolishi" to'g'risidagi to'xtamga kelishgan.

Azaldan qismat qilingan tug‘ma tabiatni o‘zgartirib bo‘lmaydi. Albatta, inson o‘z fe’-lidagi, tabiatidagi bema’ni orzu-o‘ylari, yovuz intilishlari, nojo‘ya xatti-harakatlarini jilovlab, ayb-u qusurlarini hammadan yashirib yurishi mumkin, lekin bir kuni u o‘zining asl mohiyatini namoyon qiladi. Shundan kelib chiqib, N. o‘zining mashhur qit’asida zuvalasiga insoniylik urug‘i qo‘shib qorilmagan kimsalarni har qancha tarbiyat qilma, baribir odam bo‘lmaydi, degan fikrni bildirgan edi:

Nokas-u nojins avlodin kishi bo‘lsun debon
Chekma mehnatkim, latif o‘lmas kasofat olami –
Kim, kuchuk birla xo‘tukka necha qilsang tarbiyat,
It bo‘lur, dog‘i eshak, bo‘lmaslar aslo odami.

Darhaqiqat, odam bolasi tarbiya tufayli ilm-u hunar egallashi, ba’zi yaxshi fazilatlarga ega bo‘-lishi mumkin, lekin uning tabiatidagi yovuzlik, kin, hasad, baxillik, g‘arazgo‘ylik, tuhmatchilik, yolg‘onchilik kabi tug‘ma illatlarni dunyoning jami donishmandlari bir bo‘lib tarbiyalasalar ham yo‘qotolmaydilar.

M.ning “Firdavs ul-iqbol”da keltirilgan quyidagi qit’asi garchi Xorazmdagi inoqlar hokimiyati davrida Xo‘jamurodbiyning 11 yil davomida o‘z valine’mati Avazbiy inoqqa nisbatan xiyonat yo‘lini tutib kelgani tufayli besh o‘g‘li b-n birga qatl etilishi munosabati b-n yozilgan bo‘lishiga qaramay uning yaratilishiga N.ning mazkur mashhur qit’asi bevosita ta’sir ko‘rsatgani shubhasiz:

Ahli fasod tarbiyatin qilmoq ixtiyor,
Qilmoqdurur yilonni qo‘yun ichra parvarish.

Topmas sharorat ahli navozish bila saloh,
Bo‘lmas falakka say’ bila rostlig‘ ravish.

“Tabiati buzuq, tuban kimsalarning tarbiyati uchun jiddu jahd ko‘rsatish ilonga qo‘yningdan joy berib, uni mehr-u muhabbat bilan parvarish qilishga o‘xshaydi. Har qancha harakat qilmasin, falak to‘g‘ri aylanishni odat etolmaganidek, ming lutf-u marhamat ko‘rsatganing bilan yaramas kimsalar ham to‘g‘ri yo‘lga kirib, yaxshi odamlarga aylanishmaydi”.

Albatta, M. mazkur mavzuning yangi qirrasini ochib, N. fikrini rivojlantirgan va to‘ldirgan: agar N. nopok javhardan bino bo‘lgan, asli tuban kimsalar tarbiyati u-n jon kuydirishning behudaligi haqida gapirsa, M. fisq-u fasod ahlining yaxshilikka arzimasligi, xiyonat ahliga marhamat ko‘rsatishning behudaligini ta’kidlaydi.

M.ning 19 ta muxammasidan 10 tasi N. g‘azallariga bog‘langan. Odatda, bir shoir boshqa ijodkorning o‘zini to‘lqinlantirgan, o‘ziga ilhom bag‘-ishlagan g‘azaliga taxmis bog‘laydi va shu bahona u b-n jo‘rovozlik qiladi: uning fikrlariga zamin yaratadi, rivojlantiradi, to‘ldiradi, yangi ma’no qirralarini ochadi, tashbehlar silsilasini boyitadi va h.k. Agar taxmis misralari g‘azal baytiga yopishib tushmasa, u ohorli ko‘ylakka tushgan chipta yamoqqa o‘xshab qoladi. Taxmis va g‘azal misralari o‘zaro uyg‘un kelganda esa muxammas ikki shoir ijodining mahsuli bo‘lishiga qaramay, u xuddi bir shoirning qalamidan chiqqanday taassurot tug‘diradi. Bu xuddi jo‘rovozlikda kuylangan qo‘shiqqa o‘xshaydi. M. taxmis bog‘lashda shunchalik katta mahorat hosil qilganki, u tomondan qo‘shilgan misralarni N. baytidan ajratib bo‘lmaydi. Jumladan, ustozining “Tun oqshom keldi kulbam sori ul gulrux shitob aylab” misrasi b-n boshlanadigan mashhur g‘azaliga bog‘lagan taxmisida voqea va holat tasvirlarini shoir baytiga uyqash tarzda mahorat b-n chizadi:

Mening chun bulbuli mahzun kibi
lol o‘lg‘anim bildi,
Tabassum zohir aylab, g‘uncha
yanglig‘ gul-gul ochildi,
Qo‘lin qo‘ynig‘a soldi-yu, qoshimg‘a
ro‘baro‘ keldi,
Chiqordi shishai may dog‘i bir sog‘ar
to‘lo quydi,
Ichib tutdi menga yuz nav’ nozoso
itob aylab.

Bu qadar tasvir uyg‘unligi, tuyg‘ular hamohangligi, fikrlar omuxtaligini uncha-muncha muxammasda ko‘rish qiyin. M. tomonidan qo‘shilgan misralar N. g‘azalidagi oshiq va ma’shuq holati tasvirini yanada kengaytirgan va mukammallashtirgan. Navoiyona misralar ijod qilib, ularni salafi misralari b-n bo‘ylashtira olgan M. ning katta shoirlik mahorati va muxammasnavislik tajribasidan dalolat beradi.

M.ning “Firdavs ul-iqbol”da ham buyuk salafining tarixnavislik an’analariga ergashgani yaqqol ko‘zga tashlanadi. Xususan, asarning payg‘ambarlar tarixiga bag‘ishlangan dastlabki bob va fasllarida u “T.A.H.” yo‘lidan borganini ko‘rish mumkin. Asar muqaddimasini N.ning “T.A.H.”siga o‘xshatib muxtasar tarzda yozadi va har bir payg‘ambar tarixidan so‘ng N. kabi bir ruboiy keltiradi. Matnning so‘z qurilishi va uslubida ham mushtaraklik seziladi. Lekin M. ba’zi payg‘ambarlar haqida kengroq ma’lumot beradi. Shuningdek, N. she’r bag‘ishlamagan payg‘ambarlarga ham ruboiy, qit’a yoki fard bag‘ishlaydi. Yana asarning ba’zi boblarini N. “X.”si kabi kirish so‘zlar b-n boshlaydi. Bularning bari “Tarixi anbiyo va hukamo” va “Firdavs ul-iqbol” asarlarini qiyosiy o‘rganish kerakligini taqozo qiladi.

Ma’lum bo‘ladiki, N. adabiy va ilmiy merosining M. ijodiga ta’siri keng va serqirra bo‘lib, bu ta’sir qirralarini barcha yo‘nalishlar bo‘yicha har tomonlama chuqur tadqiq etish taqozo qilinadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Мунис. Сайланма. – Т., 1980; Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т., 1980; Аҳмедов Т. Мунис // Ўзбек адабиёти тарихи, 4-жилд. – Т., 1978; Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. – Т., 1991; Жумахўжа Н. Миллий мустақиллик мафкураси ва адабий мерос (XVII–XIX асрлар ўзбек шеърияти мисолида). – Т., 1999; Жумахўжа Н. Мунис // Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 6-жилд. – Т., 2003; Очилов Э. Мунис ижодида Навоий анъаналари // “Алишер Навоий дунё шарқшуносларининг ҳалқаро илмий конференция тўплами. – Т., 2021.*

E.O.

“MUNOJOT” – N. hayotining so‘nggi yillarida o‘tgan umrini sarhisob qilib, Alloh taolodan bilib-bilmay sodir etgan ayb-u gunohlarini afv etishini tilab, lutf-u marhamat so‘rab, iltijo qilib yozgan asari. Shoirning Turkiya kutubxonalari va qo‘lyozma xazinalarida saqlanayotgan kulliyotlarida kotiblar uni so‘zboshi sifatida ko‘chirganlar. M-n, asar shoirning o‘zi tuzgan kulliyotining Darvesh Muhammad Taqiy (1495/96–1496/97) ko‘chirgan nusxasi boshida joylashtirilgan.

Asar 3 qism: an’anaviy hamd, na’t va munojotdan iborat. Hamdda Allohning yagonaligi, azaliy va abadiyligi, ikki olamning sohibi ekanligi, yer-u ko‘kdagi barcha narsalar uning ne’matiga shukr-u duodaligi, na’tda esa olam-u odamning yaratilishidan maqsad Muhammad (s.a.v.) bo‘lib, u jamiki payg‘ambarlar sarvari ekanligi, me’roj sharafi b-n ulug‘langanligi, avvalin-u oxirin xalqi uning shafoatiga muhtojligi muxtasar holda bayon qilinadi.

Munojot qismida esa xoksorlik, gunohkorlik, ojizlik, bandalik tuyg‘ulari b-n Yaratuvchiga iltijo qiladi: uni ulug‘lab, o‘zini yozg‘iradi; uni Xoja, o‘zini banda maqomida tutib, o‘zini gunohkor-u uni afv etuvchi, o‘zini xor-u uni yuksak, o‘zini taqdir quli-yu uni taqdir sohibi, o‘zini adashgan-u uni rahnamo deb, isyonkor qulidan afv-u marhamatini darig‘ tutmasligi, o‘ziga haq yo‘lini ko‘rsatishi, yomonlardan ayirib, yaxshilarga qo‘shishini o‘tinadi: “Ilohi, dunyo mayli rishtasin ko‘nglumdin uz va nafsoniyat tiyralig‘ida hidoyat sham’i bila o‘zung sori yo‘l ko‘rguz. Ilohi, ul uzun yo‘l va qatig‘ vodiyda inoyating bila yo‘lla va aning qat’ida ayog‘im toyilsa, dastgirliging bila qo‘lla Ilohi, bu yo‘l sayrida shaytonni tegramga yovutma, agar ul aduv yo‘ldin ursa, zuhdumdin ne kelgay, inoyatingni o‘ksutma”.

Muallifning dunyo go‘zallariga oshiqligi-yu

ularning ko‘yida sarsonligi haqidagi quyidagi satrlarini esa uning she’r-u dostonlarida majoziy ishq tasvirlariga keng o‘rin berib, ilohiy ishqni yetarlicha tarannum etmaganidan uzr-u andishasi sifatida qabul qilish mumkin: “Ilohi, pariuzorlarg‘a meni devona qilding va sham’i ruxsorlarg‘a ko‘nglumni parvona qilding, bu sabablardin rasvolig‘ bila olamg‘a afsona qilding. Ilohi, necha musalsal zulf savdosidin bo‘ynumda zanjir bo‘lg‘ay va muanbar xol xayolidin ko‘nglum asir, sanga taqdir bu nav’ ersa, menga ne tadbir?”

Tabiiyki, Allohga munojot bahonasida N. inson tabiatidagi qusurlar, fe’lidagi yomonliklar, xilqatidagi norasoliklardan so‘z ochadi; bandaning toati riyodan, namozi xudnamolikdan xoli emasligi, aql-u fazl sohiblari ham isyon-u gunoh domiga asirligi, dunyo muhabbatiga giriftorligi va boshqalarni fosh etadi.

N.ning boshqa asarlaridagi kabi “M.” ham Husayn Boyqaro duosi b-n nihoyasiga yetadi.

“M.” shunchaki iltijolar tizimi emas. U muayyan syujetga ega: yaratilishi, bolaligi, yigitligi, qariligi b-n bog‘liq fikrlar ketma-ketlikda berilgan. Avval ayb-u gunohlarini sanab, afv tilashiyu keyin hidoyat yo‘liga boshlashi, yaxshilarga qo‘shishini so‘rab iltijo qilishi ham o‘ziga xos tizim shaklida namoyon bo‘ladi. Ishq-u muhabbat va go‘zallik b-n bog‘liq fikrlari esa alohida qismni tashkil etadi.

“M.” saj’ usulida – qofiyali nasrda, sodda va ravon uslubda, hassos qalb tug‘yonlari ifodasi bo‘lmish haroratli tilda, ta’sirchan tarzda yozilgan. “M.” tili – teran tafakkur tili, his-tuyg‘ularga to‘la ruhiy holat tili, deyish mumkin. Ayni jihatdan u turk olimi Ogoh Sirri Levend ta’biri b-n aytganda, nasrda yozilgan munojotlarning eng go‘zal, eng ta’sirchan, eng badiiy barkamol namunasidir.

“M.”da hikmatli so‘zlar ham, ohorli tashbehlar ham mavjud: “Har kimga o‘ziga munosibdur qilig‘. Tikan ishi sanchilmoq uchun, ani kuydurmak munosibdur, bahor fayzi om uchun, anga gul musohibdur. Ilohi, har otashin la’l mening o‘t tushkan jonimdin namudor va har serob g‘unchada mening ko‘p paykon ko‘nglum shakli namudor”.

N.ning o‘zi “Xam.M.” asarida Abdulloh Ansoriy “M.” asarini qo‘lga olishi b-n nafas rostlamay o‘qib chiqqanligini qayd etib o‘tgan edi. Shoir “M.”i ham qo‘ldan qo‘ymay o‘qiladigan asarlar sirasiga kiradi. Qofiyali nasr b-n yozilgani jihatidan u yorug‘ hasrat, cheksiz umid omuxta dardli, haroratli, hassos bir qo‘shiqqa o‘xshaydi. O‘zi ham she’r kabi o‘qiladi.

N.ning boshqa asarlarida ham Allohga munojotlar mavjudligi ma’lum. “M.”dagi iltijolarda ular b-n hamohanglikni ko‘ramiz. Ayni jihatdan mazkur asar shoirning bunday o‘tinchli iltijolarining bir tizimga solingan yaxlit shakli, iltijolar majmuidir, deyish mumkin.

“M.”da muallifning ko‘ngliga armon bo‘lib cho‘kkan, amalga oshmagan orzularining hasratli aks-sadolarini ham ko‘ramiz. S.G‘aniyevaning yozishicha: “Navoiyning “Munojot” asari shoir kulliyoti uchun yozilgan so‘zboshi emas, balki hayoti oxirida e’tiqodlari mustahkam, imoni komil, ijodda g‘oyaviy niyatlari yuksak, hayoti va orzu-umidlari pok va xolisligiga inonsa-da, yana bir bor Allohdan notinch ruhiyatiga osudalik tilab, avlodlarini ma’naviy kamolotga, e’tiqodiy ustuvorlikka, o‘zligini qadrlash va uni muhofaza etishga chorlash maqsadida yozilgan, o‘tmishga emas, kelajakka qaratilgan asaridir”. U insonni o‘zligini anglash, kamolot kasb etish, imonini mustahkamlash, ezgulik sari intilishga da’vat etuvchi asar bo‘lib, uni bu yo‘ldagi barcha illatlarga qarshi kurashga chorlaydi.

“M.” N. tavalludining 550 yilligi munosabati b-n asliyatda va 12 tilda nashr etildi.

Ad.: *Алишер Навоий. Муножот. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Ғаниева С. Навоий насри нафосати. – Т., 2000.*

S.G‘., E.O., M.A.

MUNTAZIR (taxallusi; ismi Yusufqori, (1831, Qo‘qon – 1903, Andijon) – shoir, xattot. Otasidan yosh ayrilib, qarindosh-urug‘larining

ko‘magi b-n avval mahalladagi maktabda, keyin madrasada tahsil oladi. Diniy ilmlar b-n birga, falsafa, mantiq kabi dunyoviy fanlarni ham puxta o‘zlashtiradi, xattotlik san’atini egallaydi. O‘ttiz yoshlarida xatmi kutub qilib, yetuk ulamo sifatida Qo‘qonda katta e’tibor qozonadi.

Xudoyorxon o‘g‘li Nasriddinbekni Andijonga hokim qilib tayinlaganda u hali yosh bo‘lgani u-n M.ni unga otaliq qilib yuboradi (1865). U bir necha yil davomida shahzodaga ustozlik qiladi. Keyin ularning munosabatlari buzilib, saroydan chetlatiladi va Andijondagi Bobo Sa’duddin qabristonidagi hujrani makon tutadi.

Nizomiy, Hofiz, N., Bedil asarlarini mutolaa qilib, ulardan mahorat sabog‘ini o‘rgangan. Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Pisandiy, Muhayyir, Rojiy Marg‘inoniy kabi zamondosh shoirlar b-n yaqindan tanishib, ijodiy hamkorlik qilgan.

M. zullisonayn shoir bo‘lib, o‘zbek va forstojik tillarida ijod qilgan. Ko‘proq g‘azal, muxammas, ruboiy kabi Sharq she’riyatining yetakchi janrlarida ijod qilgan. An’anaviy mavzular b-n birga, zamonda kechayotgan yangiliklarni ham qalamga olgan, erk va ma’rifat g‘oyalarini kuylagan. Tasavvufiy ohanglardan ham xoli emas. M-n:

Desangkim, fard o‘lay olamda mehri
olamorodek,
Jahon asbobidin bir yo‘l damon
chekkil Masihodek.

M.ning 800 misradan ziyod she’rlarini o‘z ichiga olgan “Bayozi Muntazir” she’rlar to‘plami yetib kelgan.

N. – M.ning ijod yo‘lidagi ustoz va rahnamosi edi. U buyuk salafi ta’sirida ko‘plab she’rlar bitgan. Jumladan:

Bel-u og‘zin yo‘q-u borini tahqiq ila
bilmak-chun,
Madoris ahlig‘a yuz bahs ila ming
qiyl-u qol o‘lmish,

N.ning:

Tengri bermish ul paripaykarga
andog‘ tor og‘iz –
Kim, kishi bilmaski, anda yo‘qmudur
yo bor og‘iz, –

matla’sining o‘ziga xos mantiqiy javobi bo‘lib yangraydi.

Bu g‘azal aslida N.ning “Olur jonimni ishq-u manga dam urmoq mahol o‘lmish” g‘azaliga tatabbu’ o‘laroq yaratilgan.

Yor ulkim, voqif o‘lg‘ay xo‘bluq oyinidin,
Yo‘qsa ne lozim taashshuq surati devorg‘a, –

bayti esa N.ning “surati devor” sifati b-n bog‘liq qator baytlarini esga soladi.

Ad.: *Мунтазир. Ғазаллар. Мухаммас // Асрлар нидоси. – Т., 1982; Мунтазир. Кўҳна садолар. – Т., 2020.*

E.O.

“MUNSHAOT” – N.ning nasriy asarlaridan biri. Unda adibning insholari (maktublari) jamlangan. Tarixiy asarlar, tazkiralar, didaktik asarlar b-n bir qatorda insho ham Sharq nasrida muayyan o‘ringa ega bo‘lgan. O‘zbek adabiyotini har tomonlama rivojlantirishni maqsad qilgan N. nasrning mazkur turida ham samarali ijod qildi va inshoning klassik namunalarini yaratdi. Ularni to‘plab “M.” tuzdi. Bu ishni N. XV asrning 90-yy.ining birinchi yarmida amalga oshirgan. To‘plam tuzilgandan keyin yozilgan va yig‘ilib qolgan maktublar ham “M.”ga qo‘shib borilgan. Shu tariqa asarning bir nechta tahrir nusxasi yuzaga kelgan va ularda maktublar soni turlichadir. Birinchi tahrir nusxasi 66 ta maktubni o‘z ichiga olgan bo‘lsa, oxirgisida (90-yy.ning oxirlari) maktublar soni yuzdan ortadi.

N. insholarning muxovorot (shaxsiy yozishmalar) u-n xos bo‘lgan uchta an’anaviy turining barchasida qalam tebratgan. Shunga ko‘ra “M.” dagi maktublar quyidagicha guruhlanadi:

Murofia yo‘sinida bitilgan xatlar:
a) xitobiya; b) javobiya.
Murosala yo‘sinida bitilgan xatlar:
a) xitobiya; b) javobiya.
Riqo’ yo‘sinida bitilgan xatlar.

Oxirgi tur (riqoga) mansub insholarning “M.”da faqat xitobiya ko‘rinishi mavjud, javobiya ko‘rinishi mavjud emas.

“M.”ga kirgan yuqoridagi insho turlari va ko‘rinishlarining har biri muayyan o‘ziga xosliklarga ega. Shu b-n birga ularning barchasi insho san’atiga qo‘yilgan talablarga rioya qilingan holda yuksak badiiyat b-n bitilgan. Mazkur xatlar badiiy vositalar, usullar va san’atlardan mohirona foydalanib yozilgan insho namunalaridir. “M.”dagi ayrim olingan bir maktubdagi birgina parchada ham bir qator badiiy san’atlar va vositalar qo‘llanganini ko‘rish mumkin. “Salosat”, “jazolat”, “matonat” kabi insho komponentlari b-n birga “husni ibtido”, “husni matla’b” (“husni suol” ham deb ataladi), “husni intiho”, “baroati istehsol”, “tafhif”, “takrir” “mubolag‘a”, “talmeh” va yana boshqa bir qator poetik figuralar “M.”da faol ishlatilgan badiiy vositalarni tashkil etadi. Eng asosiysi shundaki, mazkur figuralar va vositalar o‘z-o‘zicha emas, balki xatning mazmuni, muallif niyati b-n uzviy bog‘liq ravishda qo‘llanadi va bu N.ning mahoratini, insholarning badiiyatini ko‘rsatuvchi bosh xususiyatdir.

“M.” insho san’ati namunasi bo‘lish b-n bir qatorda N. davridagi ijtimoiy-siyosiy, adabiy hayot haqida ma’lumot beruvchi manba hamdir. Undagi bir qator bitiklarda, xususan, murofia yo‘sinida yozilgan va hukmdorlarga yo‘llangan xatlarda davlat ishlari, boshqaruv, harbiy-siyosiy masalalar xususida so‘z yuritiladi. Bunday xatlar muallifning davlat arbobi sifatidagi faoliyatining turli qirralari, arbob sifatidagi mavqeyi va ta’siri, qarashlari haqida ma’lumotlar bera oladi. Bundan tashqari, “M.”da shoirning shaxsiy hayoti, ijodi, yaqinlari, ular b-n munosabatlari singari masalalarga oydinlik kiritishga yordam beruvchi hamdlar bor. Husayn Boyqaroga yozilgan xatlar shoh va shoir o‘rtasidagi munosabatlarning xarakteri haqida tasavvur beradi. Bularning barchasi “M.”ning N. hayoti va faoliyatini, uning davrini o‘rganishda qimmatli tarixiy-adabiy manba sifatidagi ahamiyatini belgilaydi.

N.ning “M.”i Sharqda yaratilgan “M.”lar orasida alohida o‘rin tutadi, zero, birinchidan, u o‘zbek tilidagi birdan bir insholar to‘plamidir. Ikkinchidan, u arab, turkiy, fors adabiyotlari tajribalarini chuqur o‘zlashtirgan, an’analarini o‘rgangan va davom ettirgan ulug‘ adib, davlat arbobi va mutafakkir qalamiga mansubdir. “M.” o‘zbek insho san’atining eng oliy namunasi o‘laroq o‘zbek nasri, umuman, Sharq nasri va insho san’atining taraqqiyotida muhim ahamiyatga molikdir.

Ad.: *Алишер Навоий. Муншаот. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Эргашев Қ. Ўзбек насрида иншо. – Т., 2011; Ғаниева С. Алишер Навоийнинг прозаик асарлари. – Т., 1981; Турсунов Ю. Муншаот – как историко-литературный источник в изучении жизни и деятельности Алишера Навои. Автореф. дисс... канд. фил. наук. – Т., 1986; Ўзбек адабиёти тарихи. 5 жилдлик, 2-жилд. – Т., 1977; Иззат Султон. Навоийнинг қалб дафтари. – Т., 1969; Эргашев Қ. Некоторые аспекты государственной диятельности Алишера Навои. – Т., 2009.*

Q.E.

“MUNSHAOTI FORSIY” – N.ning “Forsiy maktublari”. Ma’lumki, N. o‘zining o‘zbek tilida yozgan maktublarini yig‘ib, “M.” degan to‘plam tuzgan. O‘rta asrlarda ilm va she’riyat ahllarining davlat va din arboblari b-n o‘zaro yozishmalari ham ilmiy, adabiy va tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan. O‘z maktublarida Abdurahmon Jomiy ham forsiy “M.” tuzgan bo‘lib, bu asarning fanga juda ko‘p qo‘lyozmalari ma’lum. Adabiyot ahlining maktublari asosida, odatda, o‘sha davrdagi insho, ya’ni maktub yozish qoidalari asosida, ko‘p vaqt badiiy nasr b-n yozilar, saj’lar b-n bezangan nasriy matnlar orasida lirik parchaning ruboiy, qit’a, fard kabi shakllariga oid she’riy

satrlar ham qistirib ketilar edi. Shuning u-n adabiyot ahllari bu xil maktublarni badiiy asar namunalari sifatida baholab, ularni ixlos b-n yig‘ar va o‘rganar edilar.

N. o‘z forsiy maktublaridan ham “Munshaoti forsiy” nomi b-n maxsus to‘plam tuzgan, degan ma’lumot noma’lum muallif tomonidan tuzilgan “Abushqa” (XVI asr) lug‘atida uchraydi. Y.E.Bertels, S.V.Volsin va boshqalar tomonidan tuzilgan N. asarlari ro‘yxatida “M.F.” asari zikr etilmagan. H.Sulaymonov o‘z tekshirishlariga asoslanib, shoir asarlarining o‘n besh jildlik nashriga yozgan maqolasida: “Bu forsiy maktublar to‘plamining qo‘lyozmasi hozircha hech yerda yo‘liqmadi”, - deb yozadi. Lekin shunga qaramay, H. Sulaymonov o‘zi tuzgan N. asarlari ro‘yxatiga “31” raqam b-n “Forsiy munshaot”ni ham kiritgan. Afg‘on olimi Muhammad Yoqub – Vohid Juzjoniy ham “Amir Alisher Navoiy “Foniy” to‘plamidagi maqolasida (99-bet) N.ning forsiy xatlari to‘plamining uchramaganini yozadi.

N.ning forsiy maktublari haqidagi birinchi yaxshi so‘zni “Makorim ul-axloq”da Xondamir aytgan va bunga shoirning Amir Afzaliddin Muhammad va Xoja Shahobiddin Ubaydulloga yozgan maktublarini misol qilib ko‘rsatgan: “Oliyhazrat (Navoiy)ning forscha inshoda g‘oyatda kuchliligi va zehnining o‘tkirligi janobi Amir Afzaliddin Muhammadga, janob fazilatli, podshoh dargohi amirlarining zubdasi Xoja Shahobiddin Ubaydulloga nasihat tariqasida yozgan bu xatlaridan anglashiladi” (Xondamir bu xat matnini to‘la keltiradi).

Prof. A.Semenov “Navoiy asarlari qo‘lyozmalarining tavsifi” risolasida N.ning o‘zbek tilidagi “M.”i qo‘lyozmalaridan birida uning bir forscha maktubi ham borligini xabar qiladi. Afg‘onistonlik n.shunos olim Fikriy Saljuqiy “Amir Alisher Navoiy “Foniy” to‘plamida N.ning Sulton Husayn Boyqaro nomiga yozgan bir forsiy maktubini keltiradi (139-140-betlar) va uni insho san’atining yaxshi namunasi, deb baholaydi. N. ning “Xam.M.” asarida esa shoirning Jomiy nomiga yozilgan 14 ta maktubi ma’lum.

N.ning bizga ma’lum forsiy maktublarida ham adolat va insoniylikni, ma’rifat va she’riyatni ulug‘lash, mansabparastlik va badnafslik kabi illatlardan saqlanish g‘oyalari targ‘ib va tashviq etiladi. Hozir ham bu maktublar katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Ad.: *Ғиёсиддин бинни Ҳумомиддин Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Т., 1948; Ҳайитметов А. Табаррук излар изидан (Тўплам). – Т., 1979; Семенов А.С. Описание рукописей произведений Навои. – Т., 1940.*

Ab.H.

MUNSARIH (ar. – erkin) – mustaf’ilun (3-hijo qisqa, qolgan hijolar cho‘ziq - – – V –) va maf’u(v)lotu (4-hijo qisqa, qolganlari cho‘ziq- – – – V) asllarining takrorlanib kelishidan hosil bo‘ladigan bahr (mustaf’ilun maf’u(v)lotu mustaf’ilun maf’u(v)lotu - – – V – / – – – V / – – V – \ – – – V). Aruz va zarbida erkinlik bo‘lgani u-n shunday atalgan. O‘zbek she’riyatida ancha faol qo‘llanadi. Lekin N.gacha iste’molda bo‘lmagan. “M.A.”da uning 11, “Muxtasar”da 34 vazni misollar b-n ko‘rsatib berilgan. O‘zbek she’riyatida M. bahrining asosan 3 vazni qo‘llanadi. N. bu 3 vaznda 8 ta g‘azal yozgan. Jumladan, quyidagi matla’li g‘azal munsarihi musammani matviyi makshuf vaznida:

Vahki, chamandin yana esdi shamol o‘zgacha,
Har dam o‘lur atridin ko‘ngluma hol o‘zgacha.

“M.A.”da xalq qo‘shiqlari vaznlari haqida fikr yuritar ekan, N. yozadi: “Yana “chinga”durkim, turk ulusi zifof va qiz ko‘churur to‘ylarida ani ayturlar, ul surudedur bag‘oyat muassir va ikki nav’dur. Bir nav’i hech vazn bila rost kelmas va bir nav’ida bir bayt aytilurkim, munsarihi matviyi mavquf bahridur va “yor-yor” lafzini radif o‘rnig‘a mazkur qilurlar, andoqkim:

Qaysi chamandin esib keldi sabo, yor-yor –
Kim, damidin tushti o‘t jonim aro, yor-yor?”

Muftailun fo’ilon muftailun fo’ilon

M. bahri xalq qo‘shiqlariga yaqinligi – sho‘x va o‘ynoqi, ravon va ohangdorligi b-n alohida joziba kasb etadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Мухтасар. – Т., 1971; Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т., 1998; Ҳожиаҳмедов А. Навоий арузи нафосати. – Т., 2006; Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – T., 2019.*

Y.I., E.O.

MURABBA (ar. – to‘rtlik) – aruz tizimida har qaysi baytda 4 rukn ishtirok etuvchi vazn turi. M-n, N. “M.A.” asarida ramali murabbai maxbun vazniga quyidagi baytni misol tariqasida keltiradi:

Manga hajring-/ din alam ko‘p,
Sanamo, qil-/ ma sitam ko‘p.

Foilotun \ foiloun
Foilotun \ foilun

Ad.: *Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – T., 2019.*

H.A.

MURID I – Alloh taoloning sifatlaridan biri. M. mutlaq iroda va ixtiyor sohibi. Shayx Najmiddin Doya: “Bilgilki, Iroda buyuk bir davlat, barcha saodatlarning ildizi. Iroda bashariy sifatlardan emas, balki ilohiy sifat nuri erur. Shayx Abul Hasan Haraqoniy shunday deydi: “Uning irodasi bizning irodamizdir”. Demak, iroda so‘zidan kelib chiqqan murid kalimasi, avvalo, Alloh sifatiga ishorat qiladi. Xalqning “Allohning irodasi” iborasi ham shu ma’nodadir.

N. ham Allohning ushbu sifatiga alohida e’tibor qaratib, “S.M.” asarida yozadi:

Kim ul sekkiz erur Haqning sifoti
Ki, boridin munazzah qildi zoti.

Erur Hayyu Alim-u yana Qodir,
Murid-u ham Sami’ o‘ldi-vu Nozir.

Takallum vasfig‘a dag‘i muvofiq,
Yana ibod af’olig‘a Xoliq.

Ad.: *Алишер Навоий. Сирож ул-муслимин. ТАТ. 10 жилдлик. 10-жилд. – Т., 2011; Najmiddin-i Daye. Sufilerin seyri. – Istanbul, 2013;*

Z.R.

MURID II – arabcha “iroda” so‘zidan olingan bo‘lib, xohish, istak, qasd qilmoq. Allohning M. sifatidan paydo bo‘lgan sayr-u sulukdagi murid tom ma’noda murshidga irodasini taslim etgan solikdir. “N.M.”da o‘qiymiz: “Dinovariydan so‘radilar: Murid kimdur va aning sifati nedur? Bu oyatni o‘qidikim: To ularga keng yer torlik qilib qolguncha va dillari siqilib, Allohning faqat o‘ziga tavba qilish bilangina qutulish mumkin ekanliklarini bilgunlaricha...”. Darhaqiqat, M.lik mohiyatini anglatuvchi eng mukammal ta’riflardan biri shudir. M. ilm va ma’rifat talabida komil murshid izlagan, uning dargohida yillarcha nafsini tarbiya etgan, ranj chekkan Haq yo‘lchisi. Uning yagona talabi Yaratganga yaqinlik, tayanch tutqichi – Qur’oni Karim va Hadisi sharifdir. Husayn Voiz Koshifiy ham: “Agar Murid so‘zining ma’nosi nima deb so‘rasalar, javob berib aytki, Muridning lug‘aviy ma’nosi istovchi, xohlovchi demak. Zero, botinda xohish bo‘lmasa, zohirda hech bir amal ko‘zga tashlanmagay. Va tariqat tilida Murid deb nafsning barcha murod(istak)laridan qutulgan odamga aytadilar. Bunday odamda pirning xohishidan o‘zga xohishi bo‘lmaydi”, – deydi.

Komil murshidga qo‘l berish, ya’ni M. irodasini piriga taslim etishi bay’at deiyladi. Bu

masalada “Agar bilmaydigan bo‘lsangiz, ahli ilmlardan so‘rangiz (Nahl: 16/43)” kabi oyatlar asos bo‘lgan. Anglash lozimki, murshidga bay’at aslida Hazrati Payg‘ambar (s.a.v.) va Allohga intisobdir. Zero, Qur’oni Karimda ham bu borada: “Albatta, Senga bay’at qilayotganlar faqat Allohning o‘ziga bay’at qilmoqdalar. Allohning qo‘li ularning qo‘llari ustidadir (Fath: 48/10)”, – deyilgan. Hudaybiya vodiysidagi Rizvon daraxti ostida sahobalar Payg‘ambar (s.a.v.)ga to so‘nggi nafaslarigacha g‘anim b-n jang qilishlari, sodiq holda qolishlari haqida qasamyod etadilar. Bu ahdlashuv islom tarixida Alloh rozi bo‘ladigan qasamyod – “Bay’at ur-rizvon” nomi b-n mo‘min qalblardan o‘rin oldi. Tasavvufda bay’at mana shu sunnatga asosan “Murshidga qo‘l bermoq” ma’nosida keladi.

Mumtoz lirikada M. oshiq, murshid ma’shuq obrazida namoyon bo‘ladi. “Murid shayxning valoyat jamoliga oshiq bo‘lmaguncha, o‘z iroda va ixtiyorining tasarrufidan tashqariga chiqib, shayx irodasi tasarrufiga kirolmaydi. Murid shayxining murodini iroda etgan kishidir”. M. murshidining do‘stini do‘st, g‘animini g‘anim bilish darajasida yaqin bo‘lishi joiz. N. ham “N.M.”da shunday qimmatli ma’lumotni keltiradi: “Shayx ul-islom debdurki, men Ibn Sam’un bila yaxshi emasmenki, ul maning ustodim Husriyni ranjida qilur erdi. Har kishikim, sening ustodingni ranjida qilur bo‘lsa, sen andin ranjida bo‘lmasang, it sendin yaxshiroq!”. Komil murshidlar M.larini ta’lim olish u-n boshqa ustozlarga yo‘llashdan hech ham orlanishmagan. Shu bois tariqatda xirqa ikkiga ajraladi: “Biri irodat xirqasi va ani bir shayxdin o‘zgadin olmoq ravo ermas va yana biri tabarruk xirqasi. Va ani ko‘p mashoyixdin tabarruk uchun olmoq ravodur”. Mashoyixlar: “Har eshikda yurgan hech eshikda, bir eshikda bo‘lgan har eshikda”, – deyishgan. M.ning bir murshid qo‘l ostida tarbiya olib, bir shayxdan irodiy xirqa kiyishi afzal hisoblangan.

M., avvalo, ustoz izni va amri bo‘lmasa tik turishi, murshididan oldin so‘z ochmasligi, bo‘lar-bo‘lmasga savol beravermasligi, taomga oldin qo‘l uzatmasligi, baland ovozda so‘zlamasligi, huda-behuda kulmasligi, xullas, me’yorni unutmasligi kerak. Husayn Voiz Koshifiy “Futuvvatnomayi sultoniy” asarida M.ning sifatlari o‘nta deydi: “Avval shuki, u balog‘at yoshiga yetgan bo‘lishi kerak. Chunki balog‘atga yetmagan kishini tavbaga keltirib bo‘lmaydi va tavba qilmagan odam M.likka munosib emas. Ikkinchidan, u oqil odam bo‘lishi lozim, chunki aqlli bo‘lmasa, so‘zning past-u balandi, ramziy-botiniy ma’nolarini anglamaydi. Uchinchidan, muslim bo‘lsin, zero, agar musulmon bo‘lmasa, tavba keltirishi mumkin emas. To‘rtinchidan, talabgor bo‘lsin, ya’ni talab yo‘liga jiddu jahd bilan qadam qo‘ymasa, taraqqiy etmaydi. Beshinchidan, sadoqatli bo‘lsin, chunki agar sidqidildan kirishmasa, pirning ma’rifati ko‘nglidan joy olmagay va gar pirning so‘zi diliga ta’sir etmasa, u maqsadiga yetolmaydi. Oltinchidan, tobe bo‘lsin, ya’ni pirning ixtiyoridan bir qadam chekinmasin. Yettinchidan, baland idrokli bo‘lsin, ya’ni o‘tkir zehn va ziyraklik bilan to‘g‘ri yo‘lni topib olsin. Sakkizinchidan, qabul etuvchi bo‘lsin, ya’ni pirning so‘zlarini rost deb qabul qilsin va pirga maqbul tushsin. To‘qqizinchidan, qanoatli bo‘lsin, ya’ni faqat zaruriy ehtiyojga yarasha narsalar (yeb-ichish, kiyinish) bilan qanoatlansin, ortiqchasini talab qilmasin, zero, ortiqcha talablar kishini tariqat yo‘lidan chetlashtiradi. O‘ninchidan, solim (butun) bo‘lsin, ya’ni boshqa pirga qo‘l bermagan bo‘lsin, chunki ahdu paymon bitta bo‘ladi”. M. ning talabi Haq va Haqiqat sirlarini o‘rganmoq. Shuningdek, insoniylik mas’uliyati va sharafini to‘g‘ri anglash, har kun, har soat o‘z vijdoni ila muroqabaga kirishib, ruh ma’rifatini egallash.

So‘fiylik nazariyasida Haq yo‘lchiligidagi yetti darajadan biri M.lik, degan tasnif ham mavjud. Ammo murshidga taslimiyat ma’nosida to so‘nggi marhalaga yetgunga qadar Haq yo‘lchisining umumiy nomi M.dir, degan nuqtayi nazar juda keng tarqalgan. Bu xulosa, ayniqsa, tavhid talqiniga bag‘ishlangan “L.T.” kabi asarlarda aniq ko‘rinadi. Nuh surasidagi: “Holbuki U

zot sizlarni bosqichma-bosqich yaratdi-ku (Nuh: 71/14)!” oyatiga asoslanib, mutasavviflar Alloh insonni yetti darajada yaratgan, degan fikrni ilgari surishadi.

Mumtoz she’riyat qahramonlari tasnif etilganda asosiy uch obraz tilga olinadi: oshiq, ma’shuq, ag‘yor. Qolgan obrazlar shularga yondosh ramz, timsollar yoxud mana shu uch obraz atrofida birlashuvchi, ular haqida yorqin tasavvur uyg‘otuvchi, to‘ldiruvchi qahramonlardir. Bu mushtaraklik hamisha yonma-yon: murid-murshid-nafs, oshiq-ma’shuq-ag‘yor (raqib), rind-soqiy-zohid yoki kozib shayx, bulbul-gul-tikan(-xor), qul(solik)-Haq-shayton yoki nafs va h.k. Tariqat – ishq yo‘li. M. esa so‘fiyona adabiyotdagi eng asosiy obraz, ya’ni oshiq. Ma’shuqasining timsol-u ramzlari o‘zgarishi b-n u ham boshqa bir istiloh, ramz va timsol b-n keladi. Tolib, solik, yo‘lchi, sayyor, oshiq, bulbul, parvona kabilar murshidning tarbiyat qanotidagi M. obrazi sifatida gavdalantirilsa, darvesh, qalandar, devona, g‘arib, musofir, mehmon, miskin, gado, bechora, bedil, Majnun va boshqalarni uning sifati va holini belgilovchi obrazlar sirasiga kiritish mumkin. Aslida bularning bari nafsini tanishga urinayotgan Haq yo‘lovchilaridir. Murshid va M. bahsida adabiyotdagi ranginlik o‘quvchini hayratga soladi. Albatta, Haq yo‘lovchisi murid bo‘lganda rahnamosi murshid, oshiq-u rind bo‘lganda soqiy-u ma’shuq, ma’naviy farzand bo‘lganda bobo, ota, bulbulda gul, shamda parvona, tomchida daryo, zarrada oftob, qul bo‘lganda esa Haqdir. Tahlil va talqinda mana shu ma’rufiy juftlikni har doim inobatga olish zarur. N. lirikasida dayr piriga M. likdan bahs etiladi:

Dayr pirining muridimen,
sening ham oshiqing,
Yo‘qsa din ahlig‘a dayr ichra ne bor,
ey mug‘bacha.

Yana bir g‘azalida:

Dayr pirining muridimenki, har yon qilsa azm,
Rindlardin may ko‘tarmakka meni mumtoz etar.

Yoki:

Nechuk yiroq bo‘lali piri dayr-u mug‘bachadin,
Navoiyo, chu alarning murid-u bandasibiz.

N. asarlarida “solik”, “rohrav (rahrav)”, “rahnavarda”, “ahli irodat”, “ahli turuq”, “ahli suluk”, “sohib tariyq” kabi so‘z va birikmalar ham M.ni tamsil etadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилк. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005. Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. – Душанбе, 1987. Имом Ғаззолий. Иҳёу улумиддин. – Т., 2014; Najmiddin-i Daye. Sufilerin seyri. – Istanbul, 2013; Ҳусайн Воиз Кошифий. Футувватномаи султоний. – Т., 2011.*

Z.R.

MURODOV Abdulqodir – (1893–1974, Toshkent) f.f.n., amakisi Shomurod kotibdan husnixatni o‘rganadi. U “Abulqosim” madrasasida (1907–1917) ta’lim oladi, keyin Muammad ibn Said al-Asaliy (Shomiy domla)dan arab tili sir-sinoatlarini o‘rganadi. M.A. o‘qituvchilar tayyorlov kurslarini tugatib, muallim, 1926-y. dan O‘zbekiston Davlat nashriyotida, 1930-1940-yy.da kutubxonada, 1944-y.dan O‘zR FA Sharqshunoslik institutida ilmiy xodim bo‘lib ishlaydi. Sharqshunoslik instituti fondidagi qo‘lyozma manbalar zamon o‘tishi b-n yirtilib, o‘qib bo‘lmaydigan darajada yoki ba’zi kitoblar ta’rixi, muallifi noma’lum edi. M.A. mana shu kitoblarning nomi, muallifi, kotibning nomi va qanday qog‘ozga yozilganligini aniqlab, kartoteka katalogini tuzishda faol ishtirok etadi. M.A. mohir xattot. N.ning Abduljamil kotib (1484) tomonidan ko‘chirilgan “X.”sidagi ba’zi tushib qolgan varaqlari M.A. tomonidan asliga o‘xshatib ko‘-

chirilgan. M.A. arab xat san'atining bilimdoni sifatida, "O'rta Osiyo xattotlik san'ati tarixidan" kitobini yozadi. M.A. yetuk arabshunos tarjimon sifatida ham faoliyat ko'rsatgan. U Ibn Sinoning "Tib qonunlari" asarining 1-3-jildlaridan hamda Yoqut Hamaviyning "Mu'jam ul-buldon" asarining Markaziy Osiyo tarixi va geografiyasiga oid qismlarni arabchadan o'zbekchaga o'girgan.

Ad.: *Муродов А., Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан. – Т., 1971; Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. – Т., 1991.*

Muh.A.

MUROOT UN-NAZIR – M.N. bir-biriga munosib hodisa va narsalarni bir o'rinda jamlash san'ati. Shayx Ahmad Taroziyning ta'rificha, M.N. "ul bo'lurkim, she'r ichinda norasolarning rioyatin qilurlarkim, biri birining naziri bo'lg'ay".

Sabzayi xat birla bu gulshan vafosiz erkanin,
Kilki qudrat yozdi, rayhoni bahoridin o'qu.

N. lirikasidan olingan ushbu baytda sabzai xat, gulshan, rayhon, bahor so'zlari M.N. san'atini hosil qilganini anglash mumkin. Yoki quyidagi baytda har ikki misrada alohida-alohida tanosublarni kuzatish mumkin:

Qilmadim ul sarvi gulrux manzili bo'stonni tavf,
Do'zax ahli aylay olmas ravzayi rizvonni tavf.

A.Husayniyning xabar berishicha, bu san'atdan xoli bo'lgan she'r kam bo'ladi. Olim M.N. tanosub, tavfiq, iytilof va talfiq degan ko'rinishlarga ham egaligini qayd etib o'tgan.

N.ning, deyarli, barcha asarlarida M.N.ning minglab namunalari uchraydi. Zotan, M.N. san'ati u-n xizmat qiladigan obraz, tushunchalar doirasi nihoyatda keng va rang-barangdir. Tabiatdagi narsa va hodisalar, inson a'zolari, tarixiy, afsonaviy voqea va personajlarning ko'pchiligi shoir ijodida mazkur san'at u-n material sifatida xizmat qilgani shubhasiz. Ular mazmun va shakl jihatidan bir-birini takrorlamasligi jihatidan N. adabiy merosining nozik ma'nolarga boy, go'zal va novatorligini tasdiqlab turadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011.*

Y.I.

MUROSALA – insho turi. O'rta asrlarda jamiyatdagi mavqeyi, nasl-nasabiga ko'ra bir-biriga teng hisoblangan kishilar o'rtasidagi o'zaro yozishmalar, maktublar murosala shaklida amalga oshirilgan. O'zbek insho san'atini har tomonlama rivojlantirgan, inshoning barcha an'anaviy turlarida ijod qilgan N. M.ning ham go'zal namunalarini yaratgan. "M."dagi maktublarning salmoqli qismini M. yo'sinida yozilgan insholar tashkil etadi.

Ushbu yo'sinda bitilgan xatlarning adresatlari, asosan, shoirning do'stlari va yaqin kishilaridir. M. shakli va mazmuniga ko'ra inshoning boshqa turlaridan ajralib turadi. Bunda, eng avvalo, uning boshlanish qismining dabdabali emasligini, yakuniy qismi qisqaroq bo'lishini ta'kidlash lozim. Albatta, o'sha davr insho san'ati u-n xos bo'lgan so'zni bezash, turli san'atlarni qo'llagan holda jimjimali uslubda yozish M.ga ham xos. "M."da M. yo'sinida yozilgan maktublarning ayrimlari o'sha murakkab uslubda yozilgan. Bu hol, ayniqsa, insholarning asosiy qismida ko'zga tashlanadi. Shu bois ba'zi xatlarning yozilish sababi, muallifning maqsad-muddaosini (ular odatda, aynan, ana shu qismda bayon etiladi) ilg'ab olish ham qiyinchilik tug'diradi. M.ning bunday ko'rinishiga "M."dagi 1, 2, 3, 4-maktublarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

N. M.tida she'riy parchalarning katta o'rin tutishi ko'zga tashlanadi. Bu she'riy parchalar bayt, ruboiy, masnaviy shakllarida bo'lib, maktublarning mazmuni b-n bog'liq o'laroq, ularning badiiy kuchini oshirishga xizmat qiladi.

M. mazmun jihatdan ham o'ziga xoslikka

ega. Bu turdagi xatlar shoirning do‘stlari, yaqin kishilariga yo‘llangani uchun usulda ko‘proq shaxsiy motivlar, muallifning kechinmalari, ayrim hollarda uning iztiroblari, ko‘nglining tubida yotgan dard aks etadi. Mazkur xatlarda N.ning oliyjanob insoniy qiyofasi ham o‘zini ko‘rsatib turadi, xususan, yaqinlari b-n yozishmalaridagi samimiy mehr, sadoqat, g‘amxo‘rlik, sog‘inch, ishtiyoq tuyg‘ulari o‘zlarining sofligi, chuqurligi b-n o‘quvchini hayajonga soladi.

Ma’lumki, N.ning bir qator yaqin kishilari va do‘stlari davlat ishlarida ishtirok etib, turli mansablarda o‘tirganlar. Shu sababli ularga yo‘llangan nomalardan ishga, ularning faoliyatiga doir fikrlar, mulohazalar, yo‘l-yo‘riqlar ham o‘rin olgan. Bunda, eng avvalo, N. adresatlarni mas’uliyatni his etishga, o‘z ishida beparvolikka, loqaydlikka yo‘l qo‘ymaslikka chaqirgani diqqatga sazovordir. “Ishingiz ehtiyotin yaxshiroq qilingizkim, noxush ish voqe’ bo‘lsa, pushaymonlig‘dan sud yo‘qtur”, deb yozadi u ana shunday xatlarning birida. Boshqa bir xatda esa shunday so‘zlarni o‘qiymiz: “Olamda hargiz do‘stsiz kishi dushmansiz bo‘lmaydur va ahboblik odami a’dosiz topilmaydur. Va tavfiq nishoni uldurkim, andoq maosh qilg‘aykim, do‘stlar tili dushmanlar qoshida qisqa bo‘lmag‘ay va ahbob boshi a’do ilayida quyi tushmag‘ay...”. M.ning bunday namunalarida muallif o‘quvchi ko‘z o‘ngida ko‘pni ko‘rgan, ziyrak va ogoh inson, donishmand arbob sifatida gavdalanadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Муншаот. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Эргашев Қ. Ўзбек насрида иншо. – Т., 2011.*

Q.E.

MUROFIYA – Sharq nasrida mavjud insho turi. Tarkib topgan an’anaga ko‘ra, Sharqda jamiyatdagi mavqeyi, nasabi va martabasiga ko‘ra maktub muallifidan yuqori turuvchi shaxslarga yo‘llangan maktublar o‘ziga xos yo‘sinda bitilgan va M. deb atalgan.

N. “M.”ida shohga va shahzodalarga yozilgan ko‘plab maktublar bor va ular inshoning M. turiga mansubdir. N. M.lariga xos asosiy xususiyat ularda o‘sha davr etiketi va yozishmalar odobiga behad rioya qilinishidir. Adresatlar hukmdorlar bo‘lgani sababli N. M.larida, xususan, ularning boshlanish (murojaat) qismida adresat sha’niga aytilgan madh, maqtov, yoki duo-tilaklar katta o‘rin tutadi. Ko‘p hollarda ularning she’riy shaklda (ruboiy, baytlar shaklida) ekanligini ko‘rish mumkin. Bundan tashqari, dabdabali uslub, fikrning murakkab badiiy vositalar, ramz va tashbehlar vositasida ifodalanishi, ohangdagi ko‘tarinkilik N. M.lari u-n xos xususiyatlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu b-n birga “M.”da M.ning yuqorida aytib o‘tilgandan farq qiluvchi ko‘rinishi ham mavjud. Bu mazkur insho turining sodda shakli, takallufdan xoli ko‘rinishi bo‘lib, uslub va til nuqtayi nazaridan diqqatga sazovordir. Ular bir tomondan hajman ixcham, va qisqaligi, ikkinchi tomondan, ifodaning nisbatan soddaligi, fikrlarning aniq va lo‘ndaligi b-n ajralib turadi.

N. M.larida ijtimoy-siyosiy motivlar, davlat ishlari b-n bog‘liq masalalar yetakchi o‘rin tutadi. Shunga ko‘ra, ular N.ning davlat arbobi sifatidagi qarashlarini, turli ijtimoiy-siyosiy masalalardagi pozitsiyasini, davlat boshqaruviga oid fikr-mulohazalarini o‘rganish, arbob sifatida uni ko‘proq qaysi ishlar qiziqtirgani yoki qanday ishlar uning vakolatiga kirgani haqida xulosalar chiqarish imkonini beradi. N.shunoslar tomonidan bu yo‘nalishda muayyan ishlar qilingan.

N. M.lari haqida so‘z ketganda, uning Husayn Boyqaroga maktublari xususida alohida to‘xtalib o‘tish lozim. O‘zining mazmun-motivlari, pafosi b-n ajralib turuvchi bu xatlar muallifning adresatga bo‘lgan cheksiz ehtiromini, sadoqatini namoyish etadi va eng muhimi, ular shoh va shoir o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning xarakteri to‘g‘risida tasavvur berishi b-n qimmatlidir.

“M.”da M.ning xitobiya va javobiya ko‘rinishlari o‘rin olgan va tabiiyki, ular orasida xitobiya tarzida yozilganlari ko‘pchilikni tashkil etadi. N. M. larining bu ikki yo‘sini muayyan o‘ziga xosliklarga ega (Bu haqida qarang: “Xitobiya “, “Javobiya “).

Ad.: *Алишер Навоий. Муншаот. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Эргашев Қ. Ўзбек насрида иншо; Суйима Ғаниева. Навоий ижодиёти ва наср проблемалари. – Ўзбек насри тарихидан (тўплам). – Т., 1983.*

Q.E.

“MURUVVAT BARCHA BERMAKDUR...” – N.ning “F.K.” devonidan o‘rin olgan fard:

Muruvvat barcha bermakdur, yemak yo‘q,
Futuvvat barcha qilmoqdur, demak yo‘q.

Ma’lumki, she’rni chuqur anglash, she’r vositasida fikran sayr etishning birinchi sharti so‘zning ma’no haqiqati va ma’no o‘zgarishlari yoki yangilanishlarini yaxshi bilish hisoblanadi. She’rxon u yoki bu so‘z va iboraning mazmun tarixini nechog‘lik puxta anglasa, she’r b-n muloqotga kirishishi shuncha osonlashadi. Butun boshli she’rning to‘g‘ri talqini ba’zan bir yoxud bir necha so‘zning ma’nosi, ya’ni tub haqiqatini kashf aylay olishga bog‘liq bo‘lib qoladi. Ana shunda ma’lum bir so‘z yoki istilohning matnlar tizimidagi ma’no boyishi, mantiqiy teranlashuvi, boshqacha bir rang va ohangda zuhurlanishini ko‘rib hayron ham qolish mumkin. Bizningcha, N.ning “F.K.” devoniga kiritilgan yuqoridagi fardidagi ikki bosh so‘z: “Muruvvat” va “Futuvvat” haqida ham shunday deyish lozimdir. Chunki fardning mazmun-mohiyatini teran anglash, aynan shu ikki kalimaning ma’nosini imkon qadar to‘liq bilishni talab qiladi.

Muruvvat yaxshilik qilmoq va yaxshilikni sevish, mardlik, odamgarchilik va saxiylik demak. Alloh do‘stlarining lutf va ehsonlariga ham muruvvat deyilgan. Bundan tashqari, do‘stlarning ayb va qusurlaridan ko‘z yumish, faqat maqbul ishlarni qabul aylab, nomaqbullarini rad etish ham muruvvat.

“Muruvvatning zamini nima?” – deyilsa, hech ikkilanmasdan, axloq quvvati va ko‘ngil himmati, deyish lozim bo‘ladi. Zero, muruvvatda hech qanaqa ikkilanish, taraddud zarracha bo‘lsin, biror-bir maqsad yoki g‘arazni ko‘zlash bo‘lmaydi. Hamma ish mutloq tarzda xolis bajariladi, kimga nima berilsa, faqat ko‘ngil himmati b-n hadya etiladi.

Chin ma’nodagi muruvvatli odam eng oxirgi burda nonini ham o‘zi yemasa yemaydi, ammo zarurat bo‘lganda, uni muhtoj kishiga berishdan o‘zini aslo to‘xtata olmaydi. Shuning u-n N. fikrini quyidagicha ifodalaydi:

Muruvvat barcha bermakdur, yemak yo‘q.

Saxovat va olijanoblikning hamma ko‘rinishlarini “barcha bermakdur” iborasida mujassamlashtirganlar. Muruvvat va futuvvat kalimalarining fard boshida ketma-ket keltirilishida ham tanosibiy bir talab bor. Chunki muruvvat kamolisiz futuvvatni tasavvur qilib bo‘lmaydi: futuvvatni bir jism desak, muruvvat uning ruhi va yorqin ziyosi.

Futuvvat yigitlik, mardlik, fidokorlik mazmunidagi arabcha bir so‘z. Futuvvat ahliga javonmardlar deyishgan. Xuroson va Turkistonda futuvvat maslagidagi kishilar javonmard nomi b-n faoliyat ko‘rsatishgan va mashhur bo‘lishgan. Javonmardlikda hamma yaxshi va ezgu ishlar, asosan, yoshlikka bog‘lanadi, yoshlik kuch-quvvati, yoshlik samimiyati va fidoyiligiga nihoyatda zo‘r ishonch b-n qaraladi.

Ayrim tadqiqotchilar javonmardlik ta’limoti va harakatining yuzaga chiqishini Qur’oni Karimning “Kahf” surasi o‘n uchinchi oyatidagi mana bu so‘zlar b-n bog‘lashgan: “Darhaqiqat, ular Parvardigorlariga iymon keltirgan va biz iymonlarini ziyoda qilgan yigitlar (fatiy, fato)dir”. Bunday yigitlar musulmon olamida Alloh amrlariga to‘la-to‘kis rioya aylash, zohiran va botinan axloqni go‘zallashtirish, faqir-u fuqarolarga beg‘araz yordam ko‘rsatishlari b-n dong taratishgan.

Ma’lumki, insoniyat u-n eng xayrli, eng to‘g‘ri, eng hayotbaxsh yo‘l futuvvat yo‘li. Futuvvatga bag‘ishlangan qadimiy va mo‘tabar manbalardan bo‘lmish Abu Abdurahmon

Sulamiyning “Kitob al-futuvvat”ida ta’kidlanishicha, hatto, nabiy va payg‘ambarlar ham javonmardlik ishqi va axloqi sharofatidan oliy saodat va maqomlarga erishganlar: “...Futuvvat ishqi bilan Nuh ko‘p ingradi va nazarida futuvvat nuri porladi. Ibrohim Xalilulloh futuvvat bilan nom chiqarib, butparastlikning zararini isbot ayladi... Futuvvat bois Yusuf yo‘llarning eng go‘zalidan odim tashladi... Futuvvatni Dovuddan Sulaymon oldi, ins-u jinslar Sulaymon amriga tobe etildi... Iso futuvvat-la yorqin bir nur bo‘lib porladi, Ruh va Masih unvonini oldi. Futuvvat sharofatidan Muhammad alayhissalomga ochiq fath berildi...” Ehtimol ana shu haqiqatni aniq anglaganliklari u-n ham ahli futuvvat fikriy biqiqlik, diniy mahdudliklardan forig‘ bo‘lishgandir.

Naql qilinishicha, Abu Hafs Haddod bir masjidga to‘plangan mashhur shayxlar huzuriga tashrif buyurib, fasih bir arabiy til b-n nutq irod etibdi. Shunda undan “Futuvvat nedur?” – deb so‘rashibdi. “Avval sizlardan birontangiz futuvvat neligini so‘zlang”, – debdi Abu Hafs. O‘sha yig‘inda ishtirok etayotgan Junayd Bag‘dodiy “Menimcha, futuvvat qilgan yaxshiliklar va nafsni unutmak, ya’ni qilgan ishlarini “Men qildim”, deya o‘ziga nisbat va isnod etmaslikdir”, – debdi. Buni eshitgan Abu Hafs “Shayx ko‘p go‘zal so‘zladi”, – deya yana ilova qilibdi: “Menga ko‘ra, futuvvat insof qilmoq, ammo insof tilashni tark qilmoqdir”. Bu fikr o‘shanda futuvvat haqida hali hech kim aytmagan fikr o‘laroq e’tirof etilgan ekan. Ba’zi birovlarda “Bu gaplarning Navoiy fardiga nima aloqasi bor?” – degan savol paydo bo‘lishi mumkin.

Birinchidan, N.ning she’ri javonmardlik haqida tasavvuri sayoz o‘quvchiga emas, futuvvat tarixi, maslak va qonun-qoidalaridan zarur darajada boxabar, ya’ni “qatra”da “daryo”ni ko‘rishga qodir kitobxonga mo‘ljallanganki, bunda ilm va ma’lumot hal qiluvchi ahamiyatga ega. Buni, albatta, hisobga olish shartdir. Ikkinchidan, N. “Futuvvat barcha qilmoqdur, demak yo‘q”, derkan, o‘z hukmida Abu Hafs Haddod, Junayd Bag‘dodiy singari futuvvatning mohiyatini go‘zal va ta’sirli ifodalarda ta’riflagan allomalarning qarashlariga tayanganligini ko‘rsatadi.

She’r o‘quvchiga ma’lum, u avvaldan biladigan gaplarni qofiyalashtirib, qaytadan uning diqqatiga havola qilish emas. She’r bir ma’noda she’rxonning ilmi, didi, idrok va farosati oldida mas’uliyat sezish, uning zehniga ishonch ham demak. Ana shu mas’uliyat va ishonch mumtoz she’riyatimiz vakillarida nihoyatda baland bo‘lgan. Shu bois, ular she’r yozish salohiyatini she’r o‘qish, she’rni anglash qobiliyatidan ajratishmagan. Boshqalarning did va saviyasi b-n hisoblashmoq u-n ijodkor, eng avvalo, o‘zining did va saviyasi xususida kuyinishi zarurligi N. ning deyarli har bir so‘zi va satridan shundoq sezilib turadi. Bundan har qancha o‘rgansa, har qancha ibrat olsa arziydi. Qolaversa, badiiy ijod u-n bag‘oyat ahamiyat kasb etguvchi bu ish she’rdan yiroqlashgan yoxud she’rdan hafsalasi pir bo‘lgan o‘quvchining she’rga qiziqishini qayta jonlantirishga yordam ko‘rsatishi ham ehtimoldan yiroqmas.

Xullas, N. o‘nlab g‘azallarda aks ettirsa bo‘ladigan mohiyatni bor-yo‘g‘i bir misraga sig‘diradi. Shu birgina misra o‘quvchini futuvvat xususida yanada kengroq, yana ham ko‘proq narsa bilish ehtiyojini kuchaytiradi. Har bir she’rxon o‘z fikr-saviyasi doirasida futuvvat amaliyotining sirlarini ochishga urinadi. Javonmardlik ta’limotining buyuk vakillaridan biri Pahlavon Mahmud:

Gar dar safi mo mo‘rchayi girad joy,
On mo‘rcha she’r gardad az davlati mo.

Ya’ni, agar bizning safimizdan chumoli o‘rin olsa, ul zaif chumoli bizning davlatimiz fayzidan she’rga aylanadi, deydi. Futuvvat insonni axloqiy kuchsizlik, ma’naviy ojizlik, fikriy qullikdan xalos etguvchi ana shunday qudratli ta’limotdir.

Demak, hamma ham futuvvatni da’vo aylashi, futuvvatdan sayrashi mumkin. Biroq futuv-

vat birinchi navbatda nafsni yengish va moumonlikdan tamoman yiroqlashmoq, Haqni insondan, uning yaratiqlaridan ajratmaslikdir. Ana shunda inson “Futuvvat barcha qilmoqdir, demak yo‘q”, – degan olamshumul bir haqiqatni kashf aylashdan ham, bor kuch-quvvati b-n unga amal qilishdan ham o‘zini cheklay olmaydi. Javonmardlik ishqi va tushunchalarining N. she’riyatidan keng o‘rin ishg‘ol etganligiga bir sabab ham mana shunda bo‘lsa kerak.

Muruvvat va futuvvat falsafasini N., “M.Q.”-da ham talqin qilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011*

I.H.

MURSHID – arabcha “irshod” lafzidan kelib chiqqan. Tariqat yo‘lidagi soliklarni to‘g‘ri yo‘lga soluvchi, siroti mustaqimni ko‘rsatuvchi, muridlar nafsini tarbiya etib, komil axloqqa erishishda vosita bo‘luvchi shaxsdir. Ma’lum bo‘lishicha, komil M.ning yigirmadan ortiq xislat va fazilatlari mavjud bo‘lgan. Jumladan:

1. Ilm va ma’rifat. M. tariqat ustozi ekan, avvalo, shariat ilmlarini o‘rgangan va ularni to‘la-to‘kis ado etib, botin ilmlari – tariqat, haqiqat asrorlaridan ogoh bo‘lishi kerak. Tasavvuf adabiyotlarida ko‘rsatilganidek, tasavvuf – “shariat – ilm ul-yaqin”, “tariqat – ayn ul-yaqin”, “haqiqat – haqq ul-yaqin” manzillarini ma’rifat ila kechib o‘tiladigan ma’naviy-axloqiy ta’lim-tarbiyadir. Aslida shariat bosqichidan tariqatga o‘tish u-n ham solikka metindek iroda kerakligi qayta-qayta aytilgan. Solik istagan ilm – bu qalb va ruhni poklovchi ilmdir. Nafs nayranglaridan chalg‘iyotgan, ilm al-yaqindan qalban yiroq bo‘lgan tolib M. ostonasidan qaytarilgan. G‘azzoliy hazratlari foydali ilm Qur’oni Karimda nur, ruh, vahiy va hayot nomlari b-n kelganligini ta’kidlab bunday deydi: “Shogird olayotgan ilmini dunyoga yoki yomonlikka vosita qilsa, unga ilm o‘rgatish xuddi qaroqchiga qilich sotganga o‘xshaydi. Ilm ham qilich kabidir. Uning yaxshilikka ishlatilishi g‘azotdagi qilich o‘rniga o‘tadi. Shuning uchun qaroqchilik qilishni xohlaganlarga qilich sotilmaydi”. Albatta, ma’rifatullohga erishgan orif pirlargina buni farqlay olishgan. 2. E’tiqod. M.ning maslagi to‘g‘ri va kuchli bo‘lib, bid’atdan yiroq turishi, murid hollarini chuqur fahmlay olishi va burchiga munosib ish yuritmog‘i lozim. M.lik karomatgo‘ylik emas, e’tiqod sobitligidir. U shariati Muhammadiyadan zarra qadar chetga chiqmasligi lozim. M.lar har davrda, albatta, o‘nta yo o‘n beshta, ba’zan undan ko‘proq yoxud kamroq bo‘lsa-da, har asrda ma’mur bo‘lishi qayd etiladi. Faqat ularning bari Rasulullo (s.a.v.) yo‘lini boshlariga toj etib, uning sunnatiga amal qilishlari b-n ajralib turadilar. Muridning har qanday savoliga pirning asosli va bexato javoblari bo‘lishi, muridning holati, tafakkur darajasi, axloq yo‘sini rahnamo nazaridan bir lahza ham chetda qolmasligi shart. 3. Sidq-u sadoqat. Shayx murid tarbiyasida qat’iyat-la yo‘riqnomadan chekinmaydi. “N.M.”da shayx Najmiddin Kubroning muridi Majdiddin Bag‘dodiy (q.s.) o‘rtasida kechgan tarbiya jarayoni haqida shunday ma’lumot beriladi: “...Yoshga yetgan uluq yigit erdi, ammo latif surati va hay’ati bor erdi. Hazrat Shayx ani avval mutavazzo xidmatig‘a amr qildi. Volidasi eshitti va ul tabibaye erdi va Hazrat Shayx ham tabib erdilar, aytib yubordikim, farzand Majduddung‘a xidmate buyurg‘an ermishsiz va ul nozuk kishidur, agar murod ul xidmatdur, men o‘n turk qul yuborayin, to ul xidmatni bajo kelturgaylar va anga o‘zga xizmate buyuring! Shayx dedilarki, anga aytingki, men eshitibmenki, tib ilmin bilursen, sendin bu so‘z ajabdur. Agar sening o‘g‘lungg‘a safroviy isitma tashvish bersa, men doru ul qullarg‘a bersam, ul sihhat toparmu?”. Shayxi Valitarosh barcha muridlari qatorida Majdiddin Bag‘dodiyni ham tarbiyat qanotiga oldilar. Va u ulug‘ riyozatlar natijasida buyuk martabalarga erishdi. M.lar qalb tabiblaridir. Ular izdoshini qanday dori b-n davolash zarurligini to‘g‘ri anglashi zarur. 4. Jo‘mard-

lik va himmat. Murid u-n zarur bo‘lgan oziq-ovqat, kiyim-kechak ehtiyojlarini qondirishda ham M. saxiy va javonmard bo‘lishi lozim. Ustoz tamadan yiroq shaxsiyat. Shu bois M.lar moddiy jihatdan yetarli ta’minotga ega bo‘lishgan. Eng asosiysi, ularda Qanoat nomli to‘kislik bo‘lgan. M. muridning ostonasiga kelishini faqat qadar, deya tushunishi hamda uni tarbiya etishini Allohning unga ehsoni sifatida qabul qilishi lozim sanalgan. 5. Jasorat va Shafqat. O‘zgalarning fitna va malomatidan qo‘rqmaydigan, g‘animlarning talabi b-n muridiidan voz kechmaydigan, hasadgo‘y, axloqsiz kimsalardan uni muhofaza eta oladigan jasur shaxs – komil murshiddir. Eng muhimi, uning jasorati nafs hiylalariga mardona qarshi turishi hisoblanadi. Muridiga mehribon va shafqatli bo‘lib, uning ma’naviy ofatlarini o‘ziga olib, kamchilik va nuqsonlarini yashirmog‘i hamda afv sohibi bo‘lmog‘i kerak. 6. Go‘zal axloq. M. taqvoli va hayoli kishidirki, hech bir jihatdan muridi unga shubha nazari ila qaray olmaydi. U Alloh taoloning: “Va albatta, sen ulug‘ xulq ustidasan (Qalam: 68/4) oyati va “Albatta, men go‘zal axloqlarni oxiriga yetkazish uchun yuborilganman” hadisida kelgan payg‘ambar (s.a.v.)ning fazilatiga voris chin ummatdir. 7. Tavakkul. M. tavakkul talablariga to‘la rioya qilib, tashvishlari yuzasidan muridiidan yuz burmasligi lozim. Tavakkul tasavvufdagi eng yuksak maqomlardandir. Zero, Qur’oni Karimda ham bandalikning eng muhim shartlaridan biri sifatida qaraladi va qayta-qayta tilga olinadi: “Allohga tavakkul qiling. Allohning o‘zi yetarli vakildir (Niso: 4/81)”, “Albatta, iymon keltirgan va yolg‘iz Parvardigorlariga tavakkul qiladigan zotlar ustida (shayton) uchun hech qanday saltanat – hukmronlik yo‘qdir (Nahl: 16/99)” kabi ko‘plab oyatlarda ta’kidlangan rizo maqomiga eltuvchi tavakkulga erishgan M.lar murid kamoloti ta’limida uni asosiy usul sifatida belgilashgan. Tavakkulga mashoyixlar xilma-xil ta’rif berishgan. N. esa “N.M.”da ularni bir yerda jamlagan: “Mazkuriy (q.s.)din so‘rdilarkim, tavakkul nedur? Dedi: ixtiyor tarki. Sahl boshqa Abdulloh Tustariydin so‘rdilar, dedi: tadbir tarki. Bishr Hofiydin so‘rdilar, dedi: rizo. Abu Hafs Haddoddin so‘rdilar, dedi: musabbibni ko‘rmak, Fath Mavsiliydin so‘rdilar, dedi: sababdin malol. Shaqiq Balxiydin so‘rdilar, dedi: ajzda g‘arqi diydor. Shibliydin so‘rdilar, dedi: ko‘ngul diydorida barcha elni unutmoq”.

8. Viqor va haybat. Pir viqorli bo‘lishi shartdir, negaki muridning ko‘nglida unga qarshi bir his yoki fikr bosh ko‘tarmasligi lozim. Alloh do‘stlariga haybat va viqor baxsh etadi. N.ning “Viqor” haqidagi qit’asi ayni shu masala haqidadir:

Viqor gavhari-yu hilm ma’dani bo‘lako‘r,
Desangki, qilg‘ay itoat sanga gado bila shoh.
Bu sheva tog‘da zohirdururki, davrondin
Qachonki tafriqa yetti, ulusqa bo‘ldi panoh.

9. Navbatdagi xislat va fazilat Rizo va taslimiyatdir. M. taqdiri azal hukmlariga e’tiroz etmasligi, g‘aybga taslim bo‘lib, muridlarining kelib-ketishlariga qarab holida o‘zgarish kuzatilmasligi kerak. Umuman, N. ta’kidlaganidek, Haqning rizoligi uning rizoligidir: “Eranlar hollari suratin yoshurubturlar va malomat suratida na’li bozguna urubturlar va zohirlari binosin buzubturlar va botinlari asosin tuzubturlar. Qazodin ne kelsa o‘zlarin rizog‘a yosobturlar va olam ahlining qotig‘ ranj va irik malomatig‘a chidabdurlar”.

10. Komil bir M.ning munosib vorisi bo‘lsin. Suluk asrorlari, mashaqqatlarini to‘la fahmlay olishi zarur. Zero, buyuk shayx Najmiddin Kubro qayd etganlaridek: “Tariqatda sayri suluk etmagan, g‘ayb olamida yaxshi-yu yomonni ko‘rmagan, haybat, o‘lim va fanoning buyuk taarruzlariga ko‘krak kermagan kishining shayx bo‘lmog‘i va tarbiya ishlari bilan shug‘ullanmog‘i aslo to‘g‘ri emas”.

Insonning o‘zini anglashga, tanishga bo‘lgan ishtiyoqi koinotni idrok etishdan ham ustundir. Asli inson sayri Azalda – Olami Arvohda boshlandi, so‘ngi esa Oxirat – Abadiyatdadir. “Miy-

soq”dagi “Balo” ahdi b-n Azal va Abad oralig‘ida imtihon dunyosiga keldi Odam. Insonlar uning sinov dunyosi ekanligini unutdilar, goho o‘tar dunyo, deya qadr bermasdan boy berdilar. Ammo ushbu uzoq yo‘lchilikning insonni sharif aylagan iroda, ishq, ilm sinaladigan eng mashaqqatli manzili, eng qiyin davri – mana shu foniy dunyodir. Zero, Yaratganga ibodat, ma’rifat, muhabbat – solih amallar o‘tar dunyodadir. Agar u shunchalar “umri aziz” bo‘lmaganda: Kalomullohda ta’kidlanganidek: “Koshkiydi, yana bir karra yashashning” iloji bo‘lsa-yu...”, – deya afsus, xusron-u nadomat bilan yo‘qotilgan imkoniyat qayta berilishi orzu qilinmasdi. Bu pushaymonliklarning oldini oluvchi, mana shu idrok va iroda sinovida muhim sanalgan Payg‘ambarning ma’naviy vorisi bo‘lgan komil M.lardir. M.ning, jumladan, adabiyotning asosiy vazifasi soyirun nos – musofir insonga: “Nechun yaratildi, bu dunyoga nega keldi va qayerga ketmoqda?” kabi savollar berish va yechim topgunicha murabbiylik qilmoqdir. Shu ma’noda N. ijodida ham M. muhim obrazlardan sanaladi. U xoh lirik, xoh nasriy asari bo‘lsin mazkur obrazga qayta-qayta murojaat qiladi. Hayot so‘qmoqlarida bir piri komilga ehtiyoj tabiiy va zarur ekanligini ta’kidlaydi. Umri so‘ngida yozgan “M.Q.” asarida ham: “Har qachon musofir ko‘rmagan yo‘liga rahbarsiz qadam ursa va yetolmaydigan vodiyga tomon yugursa, uning yo‘lni yo‘qotmoq, yo‘ldan adashmoq ehtimoli bor. U uqubatlardan va xatarlardan musofirni o‘tkazib quyuvchi bir yo‘lboshchi kerak”, – degan edi.

M.ning, jumladan, adabiyotning maqsadi insonga nafsini tanitish, zotan, “Nafsini tanigan Robbini taniydi”. Haqni tanish oson emas, to kishi nafsiga orif bo‘lmaguncha, o‘zini ham, Robbini ham taniy olmaydi. Ko‘ngil Allohni tanimasa, har kimni, har narsani sevadi, chunki u sevgi u-n yaratilgan. Qalb Xoliqqa qullik qilmasa, maxluqqa qul bo‘ladi, chunki u abd sifati b-n dunyoga kelgan. Bu maslak N. asarlaridagi bosh g‘oyadir. Shu bois M. mavqeyi haqida N. barcha asarlarida to‘xtaladi, xususan, “L.T.”da bu xususida qat’iy hukmni bildiradi:

Har jamoatqaki yo‘qtur peshvo,
Yo‘lg‘a ermastur qadam qo‘ymoq ravo.

...Nafsdin har kimgakim bu biym erur,
Chora murshid ollida taslim erur.

Bo‘yla illatlarg‘a murshiddur tabib,
Kim xaloyiq pir derlar, ey habib.

“N.M.” tazkirasida M.ning ma’naviy vazifasi nazariy asoslarda ko‘rsatib berilsa, “L.T.” dostonida ma’naviy yo‘lboshchilik sir-asrori badiiy tarzda ifodalangan. “M.Q.”da esa irfoniy-badiiy asarlarga xos xulosalar tarzida bayon qiladi. Lirikada yana bir o‘ziga xos talqinga guvoh bo‘lamiz. Najmiddin Kubro: “Hol chaqmoq kabidir”, deya ta’kidlaganlaridek: devonlarida goh talvin, goh tamkin hol-u maqomlari rangdan-rangga o‘tib, ko‘nglingda, tafakkuringda har gal bir yorug‘lik baxsh etadi. Va bu nafs evrilishidagi ranginlik, tabiiyki, bayon tarziga ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi: goh ko‘ngil sayrida qo‘lidan mahkam tutgan ma’naviy ota, goh ruh bazmiga chorlayotgan ma’shuqi matlub, ba’zan bu dahri dun xilxonasidagi murshidi komil, ba’zan ko‘ngul xarobotida ma’rifat mayini sunayotgan soqiy-u dayr piridir. Mana bu misralarga e’tibor qarataylik. Shunda imon mayini so‘rayotgan talabgor nazarda tutgan soqiy obrazining mohiyati ravshanlashadi:

Soqiy, o‘lubmen, mayi imon ketur,
Jismima imon mayidin jon ketur.
Quyma bu kun jomima davron mayi,
Jonim ol, og‘zimg‘a quy imon mayi.

Demak, mutafakkir shoir ijodida piri komildan to soqiyi azalgacha mazkur obraz, ramz, timsollarning bari aslida irshod etuvchi, nafs tarbiyachilari, ya’ni murshidlardir.

N.ning M. obrazi talqinidagi mahorat, uning yuksak ruhiy bir hol-u darajasi b-n aloqador. Ma’lumki, N.ning hayot yo‘li o‘ta ziddiyatli bir davrga to‘g‘ri keldi. Shu bois uning betakror shaxsiyatini belgilash ham juda mushkuldir. Xondamir

“Makorim ul-axloq” asarida N.ning ruhiy olami, ruhoniy hayoti haqida mulohazalarini aytadi: “... ul Hazrat qabo kiygan valiylar qatoridan joy oldilar va “Ular uchun oxiratda xavf yo‘q va ular tashvish ham chekmaydilar”, deya xabar berilgan martabaga yetdilar. Ulug‘ Tangriga hamdlar bo‘lsinki, hidoyat va iqbol osmonining quyoshi bo‘lgan ul zotning muborak xulq-atvorlari doimo mana shu tarzda bolalik yillaridan va endigina o‘sib-ulg‘aya boshlagan o‘spirinlik chog‘laridan boshlab bu dunyo va undagi narsalarga bo‘lgan e’tiborsizlik etagini silkidi hamda hech qachon o‘tkinchi mol-dunyoga bo‘lgan muhabbat changini va bu dunyoning narsalariga bo‘lgan qiziqish g‘uborini o‘zining himmat etagiga qo‘ndirmadi”. N.ning tasavvuf, jumladan, M. to‘g‘risidagi qarashlarini xolis tahlil va talqin etishda o‘zi piri komillari, deya iqror etgan Sayyid Hasan Ardasher, Xoja Ahror Valiy, Abdurahmon Jomiylar b-n munosabati haqida komil bir tasavvurga ega bo‘lmoq lozim.

Albatta, tamagir, yo‘ldan ozdiruvchi, murshidlik da’vo qiluvchilar ham N. nazaridan chetga qolmaydi. M. turli fitna, ixtiloflarga sababchi bo‘lmasligi, murid ham ta’lim jarayonida islom odob-arkonidan aslo yiroqlashmasligi lozim. Hadisshunoslikdagi roviylar sanadi kabi M.larning ham to‘rt xalifa orqali Muhammad (s.a.v.) ga borib ulanadigan uzilmas silsilasi bor. Xalifalik martabasiga yetishmagan va ushbu zanjirga nisbat berilmaganlar tariqatda komil M. deya tan olinmagan. Riyokor shayxlar haqidagi qarashlar, deyarli, barcha mumtoz ijodkorlar diqqat-e’tiborida bo‘lib, hamisha murodtalab muridlar ogohlikka chorlangan. Biroq ma’rifatparvar N.ning M.ga ehtiromi qanchalar baland bo‘lsa, riyokor, tamagir shayxlarga nisbatan nafrati ham hech bir ijodkorda uchramaydi. “Meni ishqdan man etar soda shayx” deya, hatto “shayx” radifli g‘azallar bitgan mutafakkir shoir, so‘nggi asarida “Riyoyi shayxlar zikrida” nomli alohida bob ajratib: “Hayhot-hayhot, uyat, yuz ming uyat. Turfa bukim, bu mazharg‘a muridlar ham bor, xizmatida barcha sheftau qaror. Ul bu do‘konni yurutib tadbir bila va ma’rakani qurub tazvir bilakim, shayoting‘a mahalla hayratdur va devi laing‘a mujibi ibrat va nafratdur”, – deydi. Haq yo‘lchilariga haqiqiy M.lar topilmasa, oydin yo‘lni ko‘rsatuvchi asarlar tavsiya etilgan. Binobarin, “(Haq ekanligiga) hech qanday shubha bo‘lmagan ushbu Kitob g‘oyibga ishonadigan, namozni to‘kis ado etadigan va biz rizq qilib bergan narsalardan infoq-ehson qiladigan taqvoli kishilar uchun rahbar – yo‘lboshchidir (Baqara: 2/2-3)”, – deya Alloh bandalariga haqiqiy yo‘lboshchi Qur’on ekanligini eslatgan. N. ta’rifidagi M. ham qalb kasalliklarini davolovchi tabibdir. Bu tabibning davo usulida Qur’oni Karim va hadisi sharifga tayaniladi. N.shunos I.Haqqulov shunday degan: “Buyuk daholar, allomalar barcha asrlarda ham bashariyat qayg‘ulariga malham so‘zni axtarganlar. Shoh-u gadoning ong va yurak xastaliklarini bab-barobar tuzatadigan jonbaxsh so‘zlar, afsuski, g‘oyatda siyrak yaralgan. N.ning bu to‘g‘rida o‘ylamasligi mumkin emasdi. Mana, shu yo‘nalishdagi bir fikr:

Olam ichra gar gado, gar shoh erur,
Ne dardki, ul ko‘ngli aro hamroh erur.

Qur’onni tilovat etsin ar ogoh erur,
El ko‘ngliga chun davo Kalomulloh erur.

El ko‘ngliga Kalomulloh davo bo‘lmog‘iga N. shubhalanmagan. Darhaqiqat, Allohning kalomi ko‘ngillar dardiga davo bo‘lishini ta’kidlagan shoir asarlari ham bir tarbiyachidir. N. ta’rifidagi M. – sinov dunyosining qadr-qimmatini anglagan hayot odamidir. U insonni faoliyatga undaydi. Har lahza o‘z nafsi b-n musohib bo‘lib, unga aldanmaslikka olib keladi. Insonning yashashdan maqsadi nima ekanligi, qanday bo‘lishi kerakligini ko‘rsatib beradi. Mumtoz adabiyotda komil inson haqida ko‘p gapiramiz, ammo barkamolllik bir M.ning tarbiyasi b-n qo‘lga kiritiladi. Tariqat ustodi ma’nan yengib bo‘lmaydigan haqiqiy hur, ozod, butun shaxsiyatni dunyoga keltiradi. Yana shuni ta’kidlash joizki, N.ning M.i nubuvvatga

muhabbat paydo qiluvchi, natijada Yaratganning zikrini dillarga naqshlovchi valiy, orifibillohdir.

N. M.larning o‘ziga xos jihatlarini to‘la gavdalantirish maqsadida “murshidi komil”, murshidi ishq”, “murshidi aql” birikmalarini qo‘llaydi.

N. asarlarida M. “Sohib irshod”, “Irshodgar”, “Rahnamo”, “Rahnamoy”, “Rahnamoyliq”, “Rohnamun”, “Rahshunos”, “Peshvo”, “Pir”, “Bobo”, “Ota”, “Qulovuz”, “Yo‘lboshchi”, “Shayx”, “Xoja”, “Hodiy” singari istilohlar b-n keladi. Shuningdek, orif, er, eran, soqiy, valiy, Xizr, Hudhud obrazlari ham M.lik xususiyatlarini namoyon qiladi. “Kalomulloh”, “ishq”, “ko‘ngil” kalimalarini ham M. ma’nosida qo‘llab, ba’zi hollarda istiloh darajasiga ko‘taradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005; Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. – Душанбе., 1987; Имом Ғаззолий. Иҳёу улумиддин. – Т., 2014; Najmiddin-i Daye. Sufilerin seyri. – Istanbul, 2013; Ҳусайн Воиз Кошифий. Футувватномаи султоний. – Т., 2011.*

Z.R.

MURG‘OB – M. daryosi va uning havzasidagi hudud. N. va Sulton Husayn Boyqaro hayotining muayyan davridagi ayrim muhim voqealar shu yer b-n bog‘liq. Husayn Boyqaroning Yodgor mirzoni bartaraf qilib, toj-taxtni qaytarib olishi ham shu hududlarning hokimi amir Shayx Hasan Temurning Yodgor mirzodan yuz o‘girishi tufayli amalga oshgan. Shayx Hasan Temurning bu ishidan xabar topgan Husayn Boyqaro Hirotga yurishga qaror qiladi va N. b-n bu xususda maslahatlashadi. N. uning bu rejasini ma’qullagan, lekin hozircha hech kimga oshkor qilmaslikni tayinlagan. Ular yo‘lga chiqib, M. daryosi bo‘ylariga yetib kelib, Tog‘kan degan joyda to‘xtaganlar va shu yerda qo‘shinni va beklarni o‘z rejalaridan xabardor qilganlar. Reja muvaffaqiyatli amalga oshirilgan (1470).

Sulton Abusaidning o‘g‘illari Sulton Ahmad, Sulton Mahmud va Ulug‘bek Kobuliy mirzolar birgalikda Husayn Boyqaroga qarshi qo‘shin tortganda, Sulton Husayn M. bo‘ylarida mustahkamlanib olgan. Dushmanlar hech bir natijaga erisha olmay qaytib ketganlar.

“Xam.M.” asarida N. M. navohisida turgan paytida bir ruboiy bitib, Jomiyga yuborgani va Jomiy ham unga javob bitib yuborgani haqida yozadi va har ikki ruboiyni keltiradi. N. ruboiysi:

To kay chu sabo har tarafam jilvagare?
Xoham suyi sarvi xud kunam paysipare.
Faryodkunon-u xok bar sar fikano
Go‘yam, ki xalosam deh az in darbadare!

Jomiy javobi:

Az didayi jon agar ba jonon nigare,
Az tafriqayi jahon kujo qussa xure?

In tafriqa hargiz chu nagardad sipare,
Bo tafriqa jam’ bosh, to bahra bare!

“S.I.” dostonining 35-bobida N. Iskandarning Xurosonga kelganini hikoya qiladi va ushbu hududni ta’rif etadi. Bu o‘rinda u Xurosonning katta qismini suv b-n ta’minlovchi to‘rt daryoni alohida tilga oladi, jumladan, M. daryosi haqida ham baytlar bitadi. U M.ni Kavsarga qiyos qiladi va mana shu daryo tufayli Marv, Mohon singari viloyatlar obod ekanligini ta’kidlaydi:

Yana bir dog‘i keldi Murg‘ob rud
Ki, sha’nida Kavsardin o‘ldi durud.

Olib zaxmati jism-u ranji ravon,
Xirad aytibon ani ganjiravon.

Bo‘lub andin obod Moxon-u Marv,
Ki, qushtur tazarv anda, ashjor – sarv.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамсат ул-мутахаййирин. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т.,2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 2002.*

Q.E.

MUSADDAS I (ar. – oltilik) – musammat turlaridan biri, olti misrali bandlardan tashkil topgan she’r turi. M. qofiyalanish shakliga ko‘ra 2 xil bo‘ladi: 1) 1-banddagi barcha misralar o‘zaro (aaaaaa), qolgan bandlarning birinchi 5 misrasi o‘zaro va 6-misralari 1-bandga qofiyadosh bo‘ladi; 2) 1-band o‘zaro qofiyalanib (aaaaaa), qolgan bandlarining dastlabki 4 misrasi o‘zaro qofiyalangan holda, oxiri 2 misrasi tarje shaklida 1-bandning so‘nggi baytini takrorlashdan iborat bo‘ladi (bbbbba, vvvvva va h.k.). Muxammas kabi, M. ham mustaqil yozilishi yoki biror shoir g‘azali asosida yaratilishi mumkin. Lekin M.larning asosiy qismini mustaqil M.lar tashkil etadi.

Boshqa shoir g‘azaliga M. bog‘lashda unda ifodalangan fikr davom ettiriladi, chuqurlashtiriladi, rivojlantiriladi. Bunday M.ning har bandining dastlab 4 misrasi M. bog‘lovchiniki, keyingi 2 misrasi g‘azal muallifiniki bo‘ladi. Birovning g‘azaliga bog‘langan M.ning oxirgi bandida har 2 shoirning taxallusi keltiriladi.

N. ijodida 6 ta M. mavjud bo‘lib, ulardan biri forsiyda yozilgan. Bu M.larning 2 tasi mustaqil, lekin ularni shoir o‘z g‘azallariga bog‘lagan, 2 tasi Lutfiy, 1 tasi Husayn Boyqaro, 1 tasi Jomiy (forsiy) g‘azaliga bog‘langan. M-n, N.ning Lutfiy g‘azaliga bog‘lagan bir M.ning ilk bandi quyidagicha:

Zulf-u siymin jisming af’i ganji Qorun ustina,
Ganj uza sohir ko‘zung af’ig‘a afsun ustina,

Dardi ishqing ulki, qo‘ydi joni mahzun ustina,
Dedi ko‘rgach orazing ul qaddi mavzun ustina,

Ey qading to‘bi-yu jannat xaddi gulgun ustina,
Ko‘rmadi davron seningdek oy gardun ustina.

O‘zbek adabiyotida M. yozish N.dan boshlangan.

Ad.: *Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Т., 1983; Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2010.*

E.O.

MUSADDAS II (ar. – oltilik) – aruz tizimida har qaysi baytida 6 rukn ishtirok etuvchi vazn turi. M., foilotun rukni baytda 6 marta takrorlansa, uning vazni ramali musammani solim bo‘ladi. “M.A.”da N. bu vaznga misol qilib quyidagi baytni keltiradi:

Ey jamoling- / din xijil xur- / shidi anvar,
Qomatingdin / munfail sar- / vu sanavbar.

– V – – / – V – – / – V – –
foilotun / foilotun / foilotun

O‘zbek she’riyatida 6 ruknli – musaddas vaznlar keng tarqalgan. M-n, N. ning “S.I.”dan boshqa barcha dostonlari musaddas turidagi vaznlarda yozilgan: “H.A.” – sare’i musaddasi matviyi makshuf (muftailun muftailun foilun), “F.Sh.” – hazaji musaddasi mahzuf (maqsur) (mafoiylun mafoiylun fau(v)lun (mafoyil), “L.M.” – hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf (maqsur) (maf’u(v)lu mafoilun fau(v)lun mafoyil), “S.S.” – xafifi musaddasi solimi maxbuni mahzuf (maqsur) (foilotun mafoilun faulun (failon), “L.T.” – ramali musaddasi mahzuf (maqsur) (foilotun foilotun foilun (foilon):

Noqis uldur- / kim, o‘-zin ko- \ mil degay,
Komil ulkim, / nuqsin isbot / aylagay.
– V – – / – V – – / – V –
foilotun / foilotun / foilun

Ad.: *Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-жилдлар. – Т., 2011; Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т., 1998.*

E.O.

MUSALLO – (ar.) joynamoz, masjid, iydgoh, sayrgoh, xiyobon. Musulmon mamlakatlaridagi Hirot, Buxoro, Sheroz kabi koʻpgina shaharlarning chetida namoz oʻqish b-n birga dam olib kelinadigan joy. M. namozgoh ham deyiladi. Hirot M.si shaharning shimoliy-gʻarbiy qismida, Xiyobon boʻlukida, Mashhad tomon chiqib ketaverishda joylashgan boʻlib, bu yer qadimdan obod va maskan boʻlgan. Hirotning xiyobon qismi va u yerdagi M. haqida sharqshunos olim A.M.Belenetskiy tarixchi Muiniddin Isfiqoriyning "Ravzotul-jannot fi ahvoli madinati Hirot" asariga suyanib quyidagilarni yozadi: "Bu joy Islomdan oldingi davrlardan boshlab Hirotning bosh mozoroti va sajdagoh markazi boʻlib kelgan. Isfizoriy bu joyning gʻoyat goʻzal ob-havo sharoitlarini hamda xiyobonning oʻng va chap tomonlaridagi mozorlarning tabarrukligini balandparvoz soʻzlar bilan ta'kidlab shunday deydi: "Majusiylik davrida ham, hozir ham – hamma vaqt (bu joy) baxtli va duo tekkan joy boʻlgan. Bu yer shunday qiblagohki, xalq unga oʻgirilib, undan najot soʻraydi. Hamma davrlarda va zamonlarda (Xiyobon) zodagonlarning va oddiy kishilarning sajdagohi va sayilgohi, mozoroti va xursandchilik dargohi boʻlgan. Hozir ham u musulmonlar uchun Musallo va sayilgohdir".

N. M.ni yanada obod qilishga koʻp mablagʻ va kuch sarflagan. U qurgan Masjidi Jome' shu hududda boʻlgan. Shoirning mashhur "Ixlosiya" madrasasi, "Xalosiya" xonaqohi va boshqalar shu yerga yaqin boʻlgan. N. asarlarida M. soʻzi koʻp uchraydi:

Saharki xalq Musallogʻa yuz qoʻyar, xush tut,
Borurgʻa dayri fano sori tong qorongʻusin...

Ul biri dom erdi, bu bir dona el saydi uchun,
Har qachonkim azmi tasbeh-u musallo qildi shayx.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Али Акбар Деххудо, Луғатнома 13-жилд, 21024-б; Муниддин Исфизорий. Ленинград қўлёзмаси инв. №474. Беленецкий А.М. Историческая топография. Герата XV в. ("Алишер Навоий"). М.-Л., 1946.*

Ab.H.

MUSAMMAN I (ar. – sakkizlik) – musammat turlaridan biri, har bandi 8 misradan iborat mumtoz Sharq she'riyatidagi she'r shakllaridan biri. 1-bandi yagona qofiyalanishga ega (aaaaaaaa), qolgan bandlarining dastlabki 7 misrasi oʻzaro qofiyalanib, oxirgi misrasi 1-band b-n qofiyadosh boʻladi (bbbbbbba, vvvvvvva va h.k.). Ba'zi M.larda 1-banddan keyingi bandlarning 6 misrasi oʻzaro qofiyalanib, 7–8 misralar 1-banddagi oxirgi baytning takrorlanishidan iborat boʻladi. M.ning taxmis shakli ham uchraydi. Bundan biror shoirning gʻazali oldidan 6 misra keltirilib, keyin xuddi muxammasdagi kabi taxmis bogʻlanayotgan gʻazalning bayti beriladi.

N. ijodida 1 ta M. boʻlib, "F.K." devonidan joy olgan.

Har taraf azm aylab ul shoʻxi sitamkor, ey koʻngul,
Tigʻi hajridin necha boʻlgʻaybiz afgor, ey koʻngul,

Chun safar aylab edi bir qatla dildor, ey koʻngul,
Dardi hajrigʻa boʻlub erdik giriftor, ey koʻngul,

Boʻylakim, ta'rif etib gʻurbatin bisyor, ey koʻngul,
Shahr-u kishvardin malolat aylab izhor, ey koʻngul,

Anglading yo yoʻqmukim, aylar safar yor, ey koʻngul,
Vahki, boʻlduq yona hajri ilgidin zor, ey koʻngul.

Ad.: *Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011; Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Т., 1983.*

E.O., D.A.

MUSAMMAN II (ar. – sakkizlik) – aruz tizimida har qaysi baytida 8 rukn ishtirok etuvchi vazn turi. Oʻzbek she'riyatida 8 ruknli vaznlar keng qoʻllangan. M-n, N. ning

Ne xush bo‘lg‘ay / ikkovlon mas- /t
bo‘lsaq vas- / l bog‘inda,
Ko‘zum bo‘lsa / oning bo‘yni- /
dav-u og‘zim / qulog‘inda, –

bayti b-n boshlanuvchi g‘azali hazaji musammani solim vaznida yozilgan. Chunki bu bayt mafoiylun aslining 8 marta (har misrada 4 martadan) takroriga asoslanadi. Baytning taqte’si quyidagicha:

V – – – / V – – – / V – – – / V – – –

mafoiylun / mafoiylun / mafoiylun / mafoiylun.

Ad.: *Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011; Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Т., 1983.*

E.O., D.A.

MUSAHHAF (ar. – xato yozish yoki o‘qish natijasida so‘zning buzilishi, ma’noning o‘zgarishi) − so‘zning biror nuqtasi yo harfini olib tashlash yoxud so‘zga biror nuqta yo harf qo‘shish orqali so‘zning ma’nosini o‘zgartirishga asoslangan harfiy san’at. Bunda o‘zgarishga uchragan yoki uchraydigan so‘zlardagi ma’no tafovutlari muhim o‘rin tutadi.

Hayotbaxsh mayini ruh emishtuk, ey soqiy,
Magarki, “vov”ini i’lol etib, qilibsen roh.

“Ruh” so‘zidan “vov” (“u”)ni olsa, “rah” − “yo‘l” so‘zi hosil bo‘ladi.

Ko‘rmasang qoshing bo‘lurman
turg‘anim birlan fig‘on,
“Voyi” erur, bas chu bo‘lmas Navoiy
birla “nun”.

N. so‘zidan “nun” tushib qolsa, “voyi” qoladi − bu oh-voy, g‘am-g‘ussani bildiradi. Ayni jihatdan uning “fig‘on”ga nisbati bor. Ayni paytda, qayrilmaligi jihatidan qosh “nun”ga o‘xshaydi.

Ko‘zum yorug‘ tilar ersang, yoshurma
xolingni −
Ki, ko‘r o‘lur ko‘z, agar nuqtasin
nihon qilsang.

“Ko‘z” so‘zidan “z”ning nuqtasi tushib qolsa, u “ko‘r”ga aylanadi.

Ma’lumki, mumtoz she’riyatda xolni mo‘jazligi jihatidan nuqtaga o‘xshatadilar. Shunga ishora etib, shoir bu yerda so‘z o‘yini qilyapti: “Agar ko‘zimning ko‘rib turishini xohlasang, xolingni yashrima, chunki “ko‘z” so‘zidagi “z” harfining nuqtasi yo‘qolsa, u “ko‘r”ga aylanadi. Shunga o‘xshab, xolingni ko‘rmasam, men ham ko‘r bo‘lib qolaman”.

Ad.: *Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011; Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Т., 2001.*

E.O.

MUSTAZOD (ar. – orttirilgan, qo‘shilgan) – g‘azalga o‘xshab qofiyalanadigan, lekin har misradan so‘ng shu misradagi 2 ruknga teng qisqa misra ham ulanadigan mumtoz she’riyatdagi shakllardan biri. M.ning asosiy misralari alohida, qisqa misralari alohida qofiyalanadi. Ba’zida qisqa misralar asosiy misraga qofiyadosh ham bo‘ladi. Bu qisqa misralar, odatda, o‘zi ergashib kelgan misradagi fikrni davom ettiradi, rivojlantiradi, unga urg‘u beradi va xulosalaydi.

M. soz-u musiqa b-n bog‘liq bo‘lib, xalq qo‘shiqlari zaminida vujudga kelgan. N. “M.A.”da ma’lumot berishicha: “Va yana bu xalq orasida bir surud bor ekandurkim, hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf vaznida anga bayt bog‘lab bitib, aning misra’idin so‘ngra hamul bahrning ikki rukni bila ado qilib, surud nag‘amotig‘a rost keltururlar ermish va ani “mustazod” derlar ermish, andoqkim:

Ey husnunga zarroti jahon ichra tajalli,
mazhar sanga ashyo.
Sen lutf bila kavn-u makon ichra muvalli,
olam sanga Mavlo”.
Maf’uvl-u mafo’iyl-u mafo’iyl-u fauvlun
Maf’uvl-u fauvlun

M.ning o‘ziga xos ritmik-intonasion qurilishi, musiqiy ohangi kuylash u-n mos va qulay bo‘lib, o‘ynoqilik va jarangdorlik hosil qiladi. Forsiy she’riyatda ham qo‘shiq qilib kuylangan xalq ruboiylari ohangini adabiy janrlarga omuxta etish natijasida paydo bo‘lgan. O‘zbek adabiyotida ilk mustazod Hofiz Xorazmiy ijodida uchraydi. Lekin Sherozda yashab ijod qilgan bu shoir forsiy she’riyat ta’sirida o‘z M.larini yaratgani shubhasiz. Binobarin, o‘zbek she’riyatida M. janrining asoschisi ham N. hisoblanadi. Keyinchalik Mashrab, Ogahiy, Avaz, Komil kabi shoirlar bu janrda mahorat b-n qalam tebratib, N. an’analarini davom ettirdilar. M-n, o‘z she’rlarini setor jo‘rligida ijro etgan Mashrab ijodida M. salmoqli o‘rin tutadi. Ogahiy esa M.ning asosiy misradan keyin bir emas, balki 2 qisqa misra qo‘shilgan namunasini ijod qildi.

N. ijodida 4 ta M. mavjud bo‘lib, 4 devoniga 1 tadan taqsimlangan. M-n, Xoja Abdullo Marvorid shoirning “Din ofati bir mug‘bachai mohliqodur” misrasi b-n boshlanadigan mustazodiga “Sarmast-u yaqom chok” nomi b-n kuy bastalaydi. Zayniddin Vosifiyning “Badoye’ ul-vaqoye’” asarida yozishicha, bu ashula o‘sha paytda Hirotda nihoyatda mashhur bo‘lgan va u kuylanmaydigan biror uy va bu ashulani eshitganda yoqasini chok etmaydigan biror tinglovchi bo‘lmagan.

Din ofati bir mug‘bachayi mohliqodur,
mayxorav-u bebok –
Kim, ishqidin oning vatanim dayri
fanodur, sarmast-u yaqom chok.

Musiqada doira usullaridan biri. N. “M.A.” asarida ishora qilgan musiqaning 8 usulidan biri M.dir.

Ad.: *Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Айний С. Алишер Навоий. Танланган илмий асарлар. – Т., 1978; Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Т., 1983; Қуронов ва б. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2010.*

E.O., M.A.

MUSALLAS UN-NE’MA – Idris (a.s.)ning laqabi. Diniy manbalarga ko‘ra uning o‘z oti Aknuh bo‘lib, Yazid ibn Mahloyilning qirqinchi o‘g‘lidir. Suryoniy payg‘ambarlardan hisoblanadi. Islom aqidasiga binoan Idris (a.s.) tirik deb e’tirof etiladi.

Mazkur payg‘ambarning “M.” laqabi b-n atalishining sababi shuki, unga uchta ne’mat: payg‘ambarlik, hukmdorlik va hakimlik nasib bo‘lgan. Bundan tashqari, u payg‘ambarlarning ham, shohlarning ham, hakimlarning ham uchinchisi edi.

N. “T.A.H.” asarida bunga maxsus to‘xtalib o‘tgan:

Chu Idris olamda bo‘ldi muqum,
Rasul erdi-yu, podshoh-u ham hakim.
Agarchi anga bo‘ldi uchmoq makon,
Jahon ichra xud qolmadi jovidon.

“Va xalq ani “Musallas un-ne’ma”, derlarkim, uchunchi payg‘ambar va uchunchi hakim va uchunchi podshoh erdi”, – deb yozadi adib bu haqida.

Haqiqatan ham, payg‘ambarlar tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, bu uch ne’mat, ya’ni, ham payg‘ambarlik, ham hakimlik, ham hukmdorlik berilgan shaxs Idris (a.s.)dan boshqa yo‘qligini ko‘ramiz. Payg‘ambarlarning ayrimlariga yuqoridagilarning ikkitasi: payg‘ambarlik va shohlik nasib bo‘lgan. Sulaymon (a.s.), Dovud (a.s.), Muso (a.s.) va boshqalar shular jumlasidandir. Xususan, payg‘ambarlar tarixiga oid manbalarda Sulaymon (a.s.)ga alohida inoyatlar qilingani, jumladan, unga butun yer yuzining podshohligi berilgani, u faqat insonlar ustidan emas, balki ins-u jins, hayvonlar va qushlar ustidan ham hukm yuritgani, qushlar tilini bilgani haqida ma’lumotlar beriladi. Lekin shunga qaramay, unga hakimlik nasib qilmagan. Muso (a.s.)ga boshqa payg‘ambarlarga qaraganda ko‘proq inoyat qilingani, unga ulkan fazl-u kamol va ilm berilgani hamda Muso (a.s.)ning “Bu kun olam yuzida Tengri taoloning mendan donoroq bandasi bormi ekan?”,

– deb faxrlangani ma’lum. Biroq u ham hakim bo‘lmagan. Manbalarda payg‘ambarlardan Luqmon (a.s.)ga hakimlik berilgani qayd etiladi, lekin uning payg‘ambarligiga shubha bildiriladi. N. uni payg‘ambar deb e’tirof etuvchilar ko‘pchilik ekanini aytib, unga hakimlik b-n payg‘ambarlik berilgan bo‘lishi mumkin, deb hisoblaydi. Biroq u hukmdor emas edi.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Носириддин Бурҳониддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. – Т., 1991.*

Q.E.

“MUSIBATNOMA” – Farididdin Attorning irfoniy mavzudagi masnaviylaridan biri. Ramali musaddasi maqsur vaznida yozilgan bo‘lib, 7539 baytdan iborat. An’anaga ko‘ra, hamd-u na’t b-n boshlanadi. Muqaddimaning 2-qismida shoirlik iste’dodi xususida fikr yuritilib, she’rni tan olmaydiganlarning nuqtayi nazarlari rad etiladi, irfoniy she’rning ma’nosi-yu badiiy vazifasi tushuntirilib, jumladan, muallifning o‘z she’rlari mavzu va mohiyati to‘g‘risida so‘z boradi. Asarning mazmuni 40 maqola (bob)da bayon qilingan. Muallif o‘quvchini dostonning zohiriga boqmay, botiniga nazar solishga – asl maqsadni anglashga chaqiradi. Doston insonning tug‘ilishi va balog‘at yoshiga yetishi tasviri b-n boshlanadi. Balog‘atga yetgan kishi aql ko‘zi b-n dunyoga va odamlar ahvoliga nazar soladi. Aql va mushohada uni haqiqatni izlash sari yetaklaydi. Olam nizomini aql tarozisida o‘lchay boshlaydi. Shu orada insonga rahnamolik qiluvchi pir paydo bo‘ladi. Attor uning tilidan tariqat yo‘liga kirgan solikning oldida turgan mashaqqatlarni bayon qiladi. Pirning hidoyati b-n suluk – tariqat yo‘lining talablarini ijro etish boshlanadi. Zohiriy yo‘l suluk va zikr hosil bo‘ladigan fikrdan iborat. Fikr 2 xil bo‘ladi: aqliy va qalbiy. Attor aqidasiga ko‘ra, ikkinchi fikr e’tiborga molik. Shundan keyin u so‘fiylar sayr-u sulukining darajalarini sharhlab beradi. Unga binoan, solik – fikrat yo‘lovchisi o‘z sayrini yuksak va farishtalar olamidan boshlab 4 tabiiy unsur, o‘simliklar, hayvonlar va insonlar olamiga yetadi. Lekin bu b-n tugun yechilmaydi. Solik qayta pirga yuzlanadi. Endi solikning suhbati payg‘ambarlar borasida bo‘ladi. Dostonning bu qismida ko‘plab diniy qissa va rivoyatlar keltiriladi. Muhammad (s.a.v.) ostonasiga yetganda solik nafsning ramziy sayri hisoblangan 5 vodiyni bosib o‘tishga da’vat qilinadi. Ular – his, xayol, aql, dil va jondan iborat. Jon vodiysi sharhida “M.”ning ofoq va anfus sayri nihoyasiga yetadi. Tasavvuf falsafasiga ko‘ra, bu maqomlarni bosib o‘tgan solik Haqqa vosil bo‘ladi va hamma narsani o‘zida ko‘radi.

Attor o‘zining falsafiy qarashlarini solik nutqi orqali ifodalaydi. Bundan tashqari, “M.”da ofoq va anfus sayri butun nozikliklari b-n tasvirlanganki, buni boshqa irfoniy asarlarda ko‘rmaymiz. Attor har bir maqolada diniy va tasavvufiy muqaddimadan so‘ng fikrlarining tasdig‘i sifatida hikoyatlar keltiradi – ular juda ko‘p bo‘lib, jami 340 ta. Bu hikoyatlar, asosan, qisqa va lo‘nda bo‘lib, mahorat b-n asar syujetiga bog‘lab yuborilgan.

Attor o‘zi mansub zamonning ijtimoiy ahvolidan kelib chiqib, ba’zi shoh-u vazirlar, amir-amaldorlar, shayx-u zohidlarni majzub-u devonalar tilidan fosh etadi. U hakim-u faylasuflar, mutakallim-u muqallidlarni ham ayamay tanqid tig‘iga nishon qiladi. “M.”ning yana bir muhim jihati shundaki, tasvir-u bayon asnosida muallif 100 dan ziyod tasavvuf istilohlarni ham nazmiy usulda sharhlab o‘tadi. Shuning u-n ham “Xusravnoma” dostonining debochasida Attorning o‘zi “M.”ni tariqat yo‘lchilarining ma’naviy ozig‘i, deb ta’riflagan edi.

N. “L.T.”ning Attor ta’rifiga bag‘ishlangan 13-faslida shoir asarlariga baho berar ekan, “M.” haqida shunday yozadi:

Chun “Musibatnoma”sin aylab bayon,
Yuz musibat nafsqa aylab ayon.

“N.M.” tazkirasida keltirilishicha, Husomiddin Chalabiy xilvat kechalardan birida ustozi Ja-

loliddin Rumiydan Sanoiyning “Hadiqa”si-yu, Attorning “Mantiq ut-tayr” va “Musibatnoma”si yo‘nalishida bir asar yozishini so‘raydi. “Masnaviyi ma’naviy” shu tariqa dunyoga keladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011;; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 2. – Душанбе, 1989; Очилов Э. Аттор абадияти. Шайх Фаридиддин Аттор. Асрорнома. – Т., 2012.*

E.O.

MUSO (a.s.) – Qur’oni Karimda Muso (a.s.) qissasi mufassal bayon etilgan bo‘lib, 34 ta surada 136 marta uning nomi tilga olingan. M. (a.s.) ning nasablari Hazrat Ya’qub (a.s.)ning o‘g‘illaridan biri bo‘lgan Lovo ibn Ya’qubga borib taqaladi. N. “T.A.H.”da “M. (a.s.) mo‘jizalari barcha payg‘ambarlarnikidan ko‘pdir”, deb ta’kidlaydi.

M. (a.s.) Misr podshosi (Fir’avn) Ramses II davrida tavallud topgan. Rivoyatga ko‘ra, Ramses II folbinlari “Bani Isroil” qabilasida bir go‘dak tug‘ilib, voyaga yetgach, podshohning taxtdan ketishiga sabab bo‘ladi. Shunga ko‘ra, Fir’avnning buyrug‘i b-n barcha tug‘ilgan o‘g‘il farzandlar qatl etila boshlangan. M. (a.s.)ning onasi Alloh amri b-n uni bir sandiqqa solib, Nil daryosiga tashlaydi. Bu haqda Qur’onda “Qasas” surasining 7-11-oyatlarida bayon qilingan. Bolani Fir’avnning Osiyo degan iymonli bir xotini topib olib, tarbiya qiladi. M. (a.s.) ismini Fir’avnning xotini qo‘ygan bo‘lib, ibriy tilida sarv daraxti, degan ma’noni beradi. Yosh M. (a.s.) baquvvat bo‘lib voyaga yetadi. Bir misrlik sibtiy b-n urishib uni o‘ldirib qo‘yadi va Madyanga qochadi. O‘sha yerda uylanadi. “T.A.H.”da M. (a.s.) Shuayb (a.s.)ning qiziga uylanganligi aytilgan. Bir necha yildan so‘ng M. (a.s.) Misrga qaytadi. Yo‘lda qorong‘ida adashib qolib, olov ko‘rinayotgan joyga yaqinlashadi. Bu yerda unga payg‘ambarlik rutbasi berilgani aytiladi. Unga yolg‘iz Allohga ibodat qilib, Fir’avn va uning xalqini iymonga da’vat etish buyuriladi.

M. (a.s.) Alloh taolo b-n muloqotida o‘ziga yordamchi so‘raydi. Shunda akasi Horunga ham payg‘ambarlik beriladi va ukasiga yordamchi qilib tayinlanadi. Shundan keyin ular Haq amrini bajarishga kirishadilar. Yordamchi berilishining hikmati sifatida, birinchidan, M. (a.s.) oldida juda katta vazifa turganligi, ikkinchidan, u kishining tilida duduqlik borligi ko‘rsatiladi. M (a.s.) ning ukasi esa juda so‘zamol notiq bo‘lgan.

N. M. (a.s.)ning tilidagi duduqlik sababini “T.A.H.” asarida keltirib o‘tadi. M. (a.s.) yoshligida Fir’avnning tizzasiga o‘tirib, uning soqolidan tortganida, Fir’avn darg‘azab bo‘lib, uni jazolamoqchi bo‘ladi. Shunda uning xotini Osiyo, axir, bu nima qilayotganini bilmaydigan yosh bola-ku, ishonmasangiz oldiga bir la’li cho‘g‘ va bir la’li oltin olib kelib qo‘ying, u, albatta, cho‘g‘ni bilmasdan ushlab oladi, deydi. Shunda uning oldiga ikkita la’li olib kelinadi. M. (a.s.) farosat b-n qo‘lini oltinga uzatayotgan vaqtda, Jabroil (a.s.) kelib, uning qo‘lini cho‘g‘ tomon buradi. Shunda bir siqim cho‘g‘ olgan bola og‘ziga soladi va tili kuyib, chuchuk bo‘lib qoladi. N.ning yozishicha, shu sababdan u “s” harfini “sh” deb talaffuz qiladigan bo‘lib qolgan edi.

N. M. (a.s.) va Horun (a.s.) qissalarini birgalikda keltiradi va bu payg‘ambarlarni Ya’qub (a.s.) avlodidan bo‘lgan sabot, matonat va g‘ayrat egalari (ulul-azm) sifatida ta’riflaydi.

Misrga qaytib kelgan M. (a.s.) zolim Fir’avnni hidoyatga chaqirib, pand-nasihatlar qiladi. Biroq Fir’avn va atrofidagilar M. (a.s.) so‘zlarining rostligi, haqiqatan ham payg‘ambar ekaniga ishonmaydilar. M. (a.s.)ning qo‘lidagi tayoqning ilonga aylanishi, cho‘ntagidan qo‘lini chiqarganda, oyna kabi yaltirab ko‘zlarni qamashtirishi kabi mo‘jizalarini shunchaki “sehr” deb hisoblaydilar. Fir’avn sehrgarlari uning haqiqiy payg‘ambar ekanligini ko‘rib, iymon keltirganlarida Fir’avn ularni qattiq azoblab o‘ldiradi (A’rof surasi, 106-126-oyatlar). O‘zini Xudo deb

e’lon qilgan Fir’avn qibtiylarni, ya’ni, M. (a.s.) ning qavmi bo‘lmish “Bani Isroil”ni siquvlarga oladi, ularga behad zulm qiladi. Shunda Alloh taolo Misrga turli ofatlar yuboradi. M. (a.s.) o‘z qavmi b-n yurtni yashirincha tark etib, Falastin tomon ketadi. Fir’avn ularning izidan tushadi, M. (a.s.) qavmi Allohning irodasi b-n dengizdan sog‘-omon o‘tib ketishadi, lekin Fir’avn qo‘shinlarini Qizil dengiz yutib yuboradi (Yunus surasi, 90-92-oyatlar). M. (a.s.)ga Tavrot kitobi nozil etilgan. Biroq uning haqiqiy nusxasi saqlanib qolmagani va o‘zgarishlarga uchragani olimlar tomonidan e’tirof etilgan. Tavrot ibriy (qadimgi yahudiy) tilida yuborilgan. “Tora” – “qonun, shariat”, deganidir.

N. “T.A.H.” asarida Shu’ayb payg‘ambar zikrini:

Shu’ayb ayladi chun jahondin xirom,
Zuhur etti Muso alayhimas-salom, –

deb yakunlashining sababi shuki, M. (a.s.) payg‘ambarlikdan avval Shu’ayb (a.s.) xonadonida bir necha yil cho‘ponlik qilgan. M. (a.s.)ning xotini Safuro Shu’ayb (a.s.)ning kichik qizlari edi. Bundan tashqari, Shu’ayb M. (a.s.)ga Odam safiyullodan qolgan asoni taqdim qiladi va unga payg‘ambar bo‘lishini aytadi.

N. asarida M. (a.s.)ning zolim Fir’avn, xasis Qorun, Bani Isroil qavmi b-n muomalasi, Xizr (a.s.) b-n qilgan safari, mo‘jizalari, Tavrotning nozil bo‘lishi voqealari yoritiladi va “mo‘jizoti barcha anbiyodin ko‘pdir”, deb xabar beriladi. M. (a.s.) Muhammad (s.a.v.)ning o‘tmishdoshi bo‘lgan haqiqiy payg‘ambar sifatida ulug‘lanadi. M. (a.s.) Nabu tog‘iga borib, o‘sha yerda vafot etgan.

N. she’riyatida M. (a.s.) b-n bog‘liq kalim, kalimulloh, Musoyi Imron, Yadi bayzo va Turi Sino kabi timsol va iboralar uchraydi. Kalimulloh laqabi vositasida ma’shuqning nutqi ilohiy qudsiy kalom va nozik ma’noga qiyoslanadi. M. (a.s.)ning hassasi ajdarga aylanib, barcha sehrgarlarning sehrini barbod qilgani kabi ma’shuqning zulfi, sochi ham oshiqlar ko‘nglini oshufta-yu barbod etadi. Shuningdek, uning nur taratuvchi qo‘li (yadi bayzo) ham ko‘p uchraydigan timsollardandir. Ba’zi irfoniy she’rlarda M. va Xizr (a.s.) pir-u murshid timsoli sifatida talqin qilinadi. Badiiy adabiyotda mazkur holatlar talmeh san’ati asosida o‘ziga xos tashbehlar b-n keltiriladi.

Lutf ishida ko‘rguzur har dam yadi
bayzo ul oy
Ne ajab gar eltsa Musoyi Imrondin ilik.

Tushmagan bo‘lsa quyoshingdin
qo‘lig‘a partave,
Bas ne bayzo erdi jaybi Musoyi Imron aro.

Zohir aylarda yadi bayzo qilursen elni qatl,
Tig‘ urarda yeng shimolibkim,
ayon etsang bilak.

M. (a.s.) Nabu tog‘iga borib, o‘sha yerda vafot etgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Тариҳи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Носируддин Бурҳониддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. – Т., 2009; Пайғамбарлар тарихи (Исломият тарихи). – Т., 2014; Муҳаммад Саййид Тантовий. Пайғамбарлар тарихи (Қуръони Карим қиссалари). I-II томлар. – Т., 2014.*

S.R.

MUSODARA – o‘rta asr Sharq davlatlarida, shu jumladan, temuriylar saltanatida ham mavjud bo‘lgan jazo turi. Bunday jazo berilgan kishining mol-mulki xatlangan va devoniy qilingan, ya’ni davlat xazinasiga olingan. M. jazo turi sifatida ko‘proq amaldorlarga, vazirlarga nisbatan qo‘llangan. Chunki bunday kishilar orasida o‘z mansabidan foydalanib, xalqni talash yoki davlat mablag‘ini o‘zlashtirish hisobiga juda katta boylik orttirgan shaxslar ko‘p bo‘lgan. Ana shular-

dan biri Xoja Nizomulmulk edi. U mansabidan chetlashtirilib, qamoqqa olingandan so‘ng undan va qarindoshlaridan tortib olinib M. qilingan mol-mulk va boyliklar haqida “Ravzat us-safo”-da batafsil ma’lumot berilgan: “Xoja Afzaluddin Muhammad ul jamoaning mol-u mulki taftishiga kirishib, shu qadar ko‘p oltin, javohir, yaxshi kitoblar, nasldor ot-u tuyalar, chodirlar, saropardalar, ipak gilamlar, shuningdek, Misr, Farang, Chin ashyolarini musodara qildilarki, ikki tillik qalam ularning sharh-u bayonida ojizdir... Xoja Afzaluddin Muhammad qisqa vaqt ichida juda ko‘p mol jamlab, davlat xazinasini boyitishda tirishqoqlik ko‘rsatdi”.

M. haqida N. asarlarida ham ma’lumotlar bor. “M.N.”ning uchinchi majlisida Mavlono Riyoziy zikri berilgan. Unda N. Riyoziyning Zova viloyatida qozi bo‘lgani va qonunga xilof ishlar qilgani u-n qamoq va M. jazosi tayinlangani haqida yozadi: “Ul viloyatning qozisi erdi. Ul amrg‘a munofiy ishlar andin sodir bo‘lub, ma’zul bo‘ldi va qayd va musodaralar tortti...”. “X.M.”da Majiduddin Muhammadga nisbatan jazo qo‘llangani haqida ma’lumot bergan: “Azim qiyinlar tortti va bor-u yo‘q jihotin devoniy qildilar. Shahrdin boshin olib, ovora bo‘ldi va hamul ovoraliqda fanog‘a bordi”.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Хамсат ул-мутаҳаййирин. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985.*

Q.E.

MUSOFIR – arabiy lafz bo‘lib, “safarga chiqqan, sayohatchi, yo‘lchi”. Boshqa bir joy, boshqa bir yurtga ketgan kishi. N.ning M.larga yordami, ular u-n qilgan xayri haqida “M.Q.”da o‘qiymiz: “Va goh xayrot ahlig‘a o‘zumni qottim va har nav’ xayr buq’alari tuzattim, andoqki, sa’yimdin rabotlar bo‘ldi va andin musofirlarg‘a nishotlar bo‘ldi”. Demak, M., avvalo, safar tufayli, boshqa bir makonga begona bo‘lgan kishidir.

Ammo tasavvufda M. keng tushunchani anglatib, abadiyat dunyosidan foniy dunyoga safar qilgan odam ma’nosida tushuniladi. Shuning u-n bu dunyoda hamma M. sanalgan. M. har doim o‘z vataniga qaytishni istaydi hamda riyozatlar chekadi. Ammo chin vataniga qaytish, unda ham ruh salomatligini asragan holda qaytish u-n M.ga bir yo‘lboshchi kerak. Shu bois N. ham “M.Q.”da: “Ammo musofirg‘a yo‘l suubatining suhulati uchun va vodiy yiroqlig‘ining daf’i shiddati uchun va yomon uqbalarkim, oldiga kelur va azim muxotaralarki, voqe’ bo‘lur, rahnamoylig‘i uchun va mushkulkushoylig‘i uchun bir nimakim, noguzirdur komil rahnamoyi pirdurkim, aning irshodi bo‘lmayin bu yo‘lg‘a azm qilmoqni akobiri avliyo qaddasallohu taolo arvohahum joyiz tutmaydur, balki solik atvori va sulukiga yovutmaydurlar. Qalb safaridagi M.ga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatuvchi zarur. Bu hodiy, avvalo, butun olamlarning Robbisi, murabbiyi Alloh taolo, uning rasullari hamda ularning izdoshlari bo‘lmish piri komillardir. Ularsiz M.ning safari xatarlidir. N. safarning muhimligi, uning mashaqqatli ekanligini har doim o‘z asarlarida eslatgan. Jumladan, so‘nggi asarida shunday deydi: “Safar vodiysida musofir ayog‘ig‘a dard-u balo tikanlari ko‘p sonchilur, lekin har tikandin maqsud guli ochilur. Yo‘l emgagi shiddatidin badani ko‘p tovshalur va vujudi rohravlar ayog‘ig‘a to‘shalur va a’zosi ul ayog‘ ostida ushalur, ammo ko‘ngli buzug‘lug‘lari yasalur va ruhi ko‘zgusi safo olur. Har kishvarning oroyishini va har manzilning osoyishini safar ahlidin so‘r va musofirdin ko‘r. Safar qilmag‘on orom farog‘atin qayda bilsun va g‘urbat chekmagan vatanda kom rafohiyatin ne nav’ ma’lum qilsun”.

N. lirikasida M. va uning ma’naviy hollari yanayam ta’sirliroq ifodalangan. Bu dunyoning M.xona ekanligi, inson oz muddatgina turishi, abadiyat dunyosini unutmasligi urg‘ulangan. “F.K.” devonida:

Eski olamg‘a ko‘ngul ko‘p bog‘lama,
Kim musofirg‘a vatan bo‘lmas rabot, –

deyiladi. Imtihon dunyosidagi Odam avlodlarining qalbini M.lik hissi aslo tark etmasligi kerak. Shundagina u o‘tar dunyoga aldanmaydi.

Taloq ber anikim, dahr aro musofirsen,
G‘arib elga emas uylanur yeri g‘urbat.

N.dagi ifoda yangiligi fikr keskinligi, mushohada kengligi, hol rang-baranglidandir. M. mavzusida ham N.ning qarashlari va ifoda tarzi baland va yangicha:

Iting o‘lsa, jismig‘a jonimni solg‘il,
Ki bu ruhg‘a ul munosib badandur.
Qayon bo‘lsa, ko‘nglum uyin darding istar,
Nedinkim, musofirg‘a mayli vatandur.

Naqshbandiya tariqati vakili o‘laroq N. asarlarida M. tushunchasi shunday:

Musofir bo‘l, ammo vatan ichra bo‘l,
Tila xilvat-u anjuman ichra bo‘l.

Ad.: *Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

Z.R.

MUSTAJOB UD-DA’VO – duosi ijobat bo‘luvchi shaxs. N. “N.M.”da bir qator shaxslarning duosi “M.D.” deb ataydi. Jumladan, Shayx Sahl bin Abdulloh Tustariy haqida shunday yozadi: “Va hol uldirki, alar ul zamonning mashoyixi orasida mustajob ud – da’vo erdilar”. Abdulhusayn Borusiy zikrini ham u “mustajob ud-da’vo erdi” degan so‘zlar b-n boshlaydi.

Duoning mustajob bo‘lishi anbiyo va valiylarga xos xususiyatlar sanaladi. N. “N.M.” muqaddimasida valiylarning xavoriqi odati va karomati haqida yozadi va duo istijobatini ham qayd etadi: “Ma’dum ijodi va mavjud i’domi va mastur amr izhori-yu zohir amr istori va duo istijobati...”.

Valiylar ko‘p hollarda xalq boshiga tushgan ulkan falokatlar (qurg‘oqchilik, o‘lat, qahatchilik)ni daf etishni so‘rab duo qilganlar. N. tazkirasida “mustajob ud-da’vo erdi” deb ta’kidlangan Ziyod binni Kabir Hamadoniy haqida boshqa bir shayx – Kayumars Hamadoniyning so‘zlari kiritilgan. Uning aytishicha, bir yili qurg‘oqchilik bo‘lgan. U masjidga namozga borganda Ziyod binni Kabir Hamadoniyni istiqso duosini o‘qiyotganini ko‘rgan. Shu zahoti kuchli yomg‘ir yog‘a boshlagan.

“T.A.H.”dagi ma’lumotlarga ko‘ra, M.D.lik u yoki bu shaxs u-n doimiy, muqim xususiyat bo‘lmagan. Agar duo “g‘ayri mavqe’” bo‘lsa, Tangri uni qabul qilmagan”. Buni tasdiqlovchi misol Yuvsha’ (a.s.) zikrida keltirilgan. Mazkur payg‘ambar Balqo shahrini qamal qilgan, lekin zabt qila olmagan. Chunki bu shaharda Bal’om Bo’ur degan kishi bo‘lib, u M.D. edi. Shahar podshosi Boliq Bal’om Bo’urdan duo qilishni so‘ragan va Bal’om ismi a’zamni aytib duo qilgan. Natijada, Yuvsha’ (a.s.)ning qo‘shini yengilgan. Yuvsha’ (a.s.) Tangriga murojaat qilib, Bal’omning duosi “g‘ayri mavqe’” ekanini va ismi a’zamni uning xotirasidan o‘chirishni so‘ragan. Tangri Yuvsha’ (a.s)ning tilagini qabul qilgan. Shundan so‘ng Bal’omning duosi mustajob bo‘lmagan va Yuvsha’ (a.s.) Balqoni fath qilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

Q.E.

MUSTAG‘RAQ (ISTIG‘ROQ) – lug‘aviy ma’nosi “g‘arq bo‘lish”, “cho‘milish”. Diniy-tasavvufiy ma’noda valiylarga xos xususiyat yoki holat. N.ning yozishicha, ularning bu xususiyati, eng avvalo, islomning farzlari va ruknlariga munosabatida, ularni bajarishida namoyon bo‘ladi. M-n, “N.M.”da shahodat kalimasi tufayli avliyoning mazkur holatga tushishi aytib o‘tilgan: “Va andin mash’ufu mustag‘raq bo‘lubdurlar-

kim, ba’zi bu kalimani eshitgach, behush bo‘lib yiqilibdurlar. Va ba’zining bu kalima istimoi’din ruhlari mufaraqat qilibdur”.

M. tushunchasining mohiyati “L.T.” dostonidagi bir hikoyatda o‘z badiiy talqinini topgan. Unda N. bir urushda hazrat Aliga o‘q tekkani haqida hikoya qiladi. Odamlar o‘qni qanday tortib olish borasida ikkilanib qoladilar, chunki u juda chuqur kirib borgan va suyakka yetgan edi. Shunda ular Rasulullоh (s.a.v.)ga murojaat qiladilar. U kishi “O‘qni Ali namozga turganda tortib oling, zero, bu paytda u M. bo‘ladi va hech narsani sezmaydi”, deydi:

Chun nabig‘a arz etibdurlar oni,
Bo‘yla debdur ul hidoyat mahzani.

Kim ul yetgan chog‘da ehromi namoz,
Oni torturg‘a bo‘lungiz chorasoz.

Ondakim, ul zaxmning paykoni bor,
Zo‘r aylang onchakim imkoni bor.

Oncha istig‘roqdindur bahravar,
Kim ul ishdin bo‘lg‘usidur bexabar.

M. (istig‘roq) holati haqida N. dostonning 73-bobida ham so‘z yuritgan. Uning bu o‘rinda bitgan misralaridan anglashiladiki, banda o‘zining Haqqa nisbatini anglab yetgan, kashf etganda M. bo‘ladi. Ammo bu uni haq deyishga asos bermaydi, u Haqqa M.dir va uni shunday deyish to‘g‘ri bo‘ladi:

Kimga bu kashf o‘ldi mustag‘raqdir ul,
Hosholillohkim, degaysen haqdur ul.

Haqqa mustag‘raqni bo‘lmas Haq demak,
Bo‘lgay oni Haqqa mustag‘raq demak.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Навоий асарлари учун қиқача луғат. – Т., 1993.*

Q.E.

“MUSULMON SULOLARI” – yilnoma va shajaralar bo‘yicha ma’lumotnoma bo‘lib, muallifi ingliz sharqshunosi K.E.Bosvortdir. Kitobda Navoiy tilga olingan va 150 dan ortiq sulolalar haqida ma’lumot berilgan. Jumladan, temuriylar sulolasi haqidagi qismda N. tilga olingan: “Uning – (Husayn Boyqaro – B.R.) hukmdorligi davrida temuriylar madaniyati o‘z ravnaqining so‘nggi bosqichini kechirgan. Husayn Boyqaro saroyida shoir Jomiy bilan Alisher Navoiy hamda rassom Behzod ijod qilgan”, – degan izohni alohida qayd qilgan.

Ad.: *Босворт К.Э. Мусулмон сулолари. Йилнома ва шажаралар бўйича маълумотнома. – Т., 2007.*

B.R.

MUSULMONQULOV Rahim (1938–2016, Tojikiston) – tojik adabiyotshunos olimi va munaqqid, f.f. d-ri (1980), prof. (1981). Dushanbe davlat universitetini tugallagan (1962). Olim o‘z tadqiqotlarida mumtoz va zamonaviy tojik adabiyotining turli yo‘nalishlari, o‘rta asrlarda fors-tojik tilida ijod qilgan ijodkorlarning nazariy-estetik fikrlari, adabiy aloqalari, mustaqillik davridagi tojik adabiyoti vakillarining ijodi, zamonaviy adabiyotshunoslikning nazariy masalalarini tahlil va tadqiq qildi. M.R. “Sajja va uning tojik nasriga tarixiy sayohati” (1970), “Zamon talabi va adabiy aloqalar” (1973), “Nutq sirlari” (1980), “Qalb she’riyatining taraqqiyoti” (1984), “Adabiyot nazariyasi” (1985), “Janr va adabiy janrlar nazariyasi” (1988) va “Nazariy manbalarda she’riyat” (2002) singari bir qator kitoblar muallifi. Xususan, XV asr Hirot adabiy maktabi namoyandalari Husayn Voiz Koshifiy, Atoulloh Mahmud Husayn yuzasidan asarlar nashr qilgan.

M.R. “Atoulloh Mahmudi Husayni” (1983) asarida maxsus N. va Atoulloh munosabatlariga alohida bob ajratadi. Unda Atoullohning “Badoye’ ul-sanoye’” asaridagi N. ijodiga daxldor qaydlari va N.ga bag‘ishlagan she’rlari, “M.N.”-da N.ning Atoulloh haqidagi ma’lumotlari bayon

etiladi. M.R. Atoulloh Husaynning mazkur asarining yaratilishi N.ning doimiy nazorati va uni tugallash u-n hatto moddiy yordam berib turganini katta hurmat va chuqur samimiyat b-n e'tirof etganini dalillaydi.

Atoulloh N. qurdirgan madrasani bitirgani va unga o'zining mudarris qilib tayinlangani munosabati b-n yozilgan ta'rix-ruboiysi (9-iyul, 1486) hamda N.ning Astrobodga amirlik lavozimiga tayinlanishiga bag'ishlab bitgan ta'rix-qit'asi (1486-87) keltiriladi. M.R. shuningdek, Atoulloh o'z asarida ba'zi badiiy san'atlar (jumladan, "tarofuq", "maqlubi mustaviy") haqida yozar ekan, N.ning bu san'atlarni puxta bilishi va badihona ularga misol aytib berishini ham Atoulloh ta'riflari asosida yoritib beradi. M.R. yozishiga ko'ra, Atoulloh N.ga 24 she'r (ko'plari mustaqil qasida yoki g'azallar tarkibida bo'lib, 82 misradir) bag'ishlangan. Mazmunan bu she'rlar tarixiy, N. shaxsiy fazilatlari, N.ning jamiyatga va ijodkorga munosabatini aks ettiradi. Atoulloh, ayniqsa, N.dagi keng va chuqur bilimdonlikni, oliyjanoblik va mehribonlikni, odillik va saxiylikni ta'kidlab o'tadi.

M.R.ning N. va uning asarlariga oid maxsus tadqiqotlari ham bor. Jumladan, u N.ning pand-nasihat she'rlari asosida "Hikmat bo'stoniga sayr" ("Sayri dar bo'stoni hikmat") nomli maqolasida mutafakkir shoir fors she'riyatining buyuk maktabida tarbiyalanganligini ko'rsatishga muvaffaq bo'lgan. U N. aytgan har bir hikmatni Firdavsiy, Nosir Xusrav, Shayx Attor, Sa'diy, Xusrav Dehlaviy, Hofiz, Ibn Yamin va boshqa forsiyzabon shoirlarning ash'orlari b-n qiyoslab, N.ning ulardan ilhomlanganini o'z xulosalarida e'tirof qilgan. M.R. N. Sa'diyning "Guliston"dagi didaktik mazmundagi g'azallari va hikoyatlariga ko'proq nazar tashlaganini aniq misollar b-n ko'rsatgan.

M.R. "Navoiydan bir necha bayt" maqolasida shoirning uchta forsiy bayti Atoulloh Mahmud Husayniyning "Badoye' us-sanoye'" kitobidan ham o'rin olganini aytgan. Buyuk shoirning Husayniyga munosabati bunga sabab qilib ko'rsatiladi, ularning munosabatlariga doir ma'lumotlar keltirilib, muhokama qilinadi. Nihoyat, ular N.ning nashr etilgan asarlari orasida yo'q, yangi baytlar, degan xulosaga keldi. Olim 1991-y. "Navoiy tushidagi fors manbalari" nomli yana bir maqola yozadi va unda N. "M.A."da Shamsiy Qays Roziy, Nosiriddin Tusiy, Abdurahmon Jomiy qarashlaridan foydalanganligini isbotladi. Uning tadqiqotlarida zikr etilgan allomalarning fikrlari b-n N. bevosita emas, balki "Badoye' us-sanoye'" orqali tanishgan, degan farazlari ham mavjud. Qolaversa, ushbu maqola N. va Atoulloh Mahmud Husayniyning she'riyatning muhim ahamiyatiga tegishli fikrlari o'rtasidagi mushtarakliklarni ochib beradi.

M.R. N. va Atoullohning do'stona munosabatlarini adabiyot, xalqlar do'stligining yorqin sahifasi sifatida talqin va targ'ib etadi.

Ad.: *Чанд байте аз Навоӣ. Ҳақиқати Ӯзбекистон, 27 октябри 1970; Сарчашмаҳои форсӣ дар арӯзи Навоӣ. Ахбороти Тожикистон. – Сер.: шарқсӣ, таърих, филология. – Душанбе, 1991. – №3; Раҳмонов Ш. Хоки Ватан аз тахти Сулаймон беҳтар (Ҳаёт ва фаъолияти илмии профессор Р.Мусулмонқулов). – Душанбе, 2015; Энсиклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 2. – Душанбе, 1989; Муносибати дӯстонаву равобити эҷодии Жомӣ ва Навоӣ. – Душанбе, 1990; Навоий. Ҳикматлар. Тӯпловчи ва сӯзбош муаллифи Муталлибов С. – Т., 1968.; Мусулмонқулов Р. "Бадоеъ ул-афкор" фи саноеъ ил-ашъор"и Кошифи (тожик тили). – Душанбе, 1973; Мусулмонқулов Р. Атоулла Махмуди Ҳусайни (рус тилида). – Душанбе, 1983.*

Ab.A., S.G'.

MUTADORIK (ar. – bir-biriga ulanuvchi) – foilun (2-hijo qisqa, qolganlari cho'ziq – – V –) aslining takroridan hosil bo'lgan bahr (foilun foilun foilun foilun – – V – / – V – / – V – / – V –). Uch hijodan iboratligiga ko'ra u mutaqorib bahri b-n o'zaro juftlik hosil qiladi. Bu

bahr Xalil ibn Ahmad keltirgan 15 ta bahr qatoriga Abulhasan Anfash tomonidan qo‘shilgan. Shuning u-n ham u bahri muhdas (yangi topilgan bahr) yoki bahri g‘arib (chetdan kelgan bahr) deb ham yuritiladi. O‘zbek she’riyatiga uni N. olib kirgan. “M.A.”da M. bahrining 7 vaznini misollar b-n ko‘rsatadi. Bobur esa “Muxtasar” asarida ayni bahrga mansub 26 ta vaznni keltiradi. M-n, N.ning quyidagi matla’li g‘azali mutadoriki musammani solim vaznida:

Jong‘a la’ling mayi jomidur multamas,
Ne Xizr suyi, ne jomi Jamdur havas.

N. M. bahrining 2 vaznida 3 ta g‘azal yaratgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Бобур. Мухтасар. – Т., 1971; Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т., 1998; Ҳожиаҳмедов А. Навоий арузи нафосати. – Т., 2006.*

An.H., E.O.

MUTALLIBOV Solih (1900–1985) – f.f. d-ri, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi. 1941-y.i “H.A.”ni izohlar va sharhlar b-n nashr qildirgan. 1944-y.da esa “Hayrat ul-abror”ning tanqidiy matni” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan. 1959–60-yy. “X.M.” nashriga muharrirlik qildi. Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘ot ut-turk”ini nashrga tayyorlashda N. asarlaridan ko‘plab misollar keltirgan.

Ad.: *Əlişer Navaij. Həjratul əbrar. – T., 1946.*

H.A.

“MUTAFAKKIR VA MUMTOZ SHE’RIYAT” – N.shunos olima Dilorom Salohiy tomonidan tayyorlangan 2 kitobdan iborat monografiya. Monografiyaga olimaning ko‘p yillik kuzatishlari asosida e’lon qilingan tadqiqotlari kiritilgan. Birinchi kitob to‘liq N. ijodiga bag‘ishlangan. “Navoiy ijodxonasiga intilib”, “She’riyat masalalari: tahlil va talqinlar” nomli qismlarda “Navoiy ijodida turkona uslub muammolari”, “Navoiy devonlari va ilmiy-tanqidiy matn yaratish muammolari”, “Ijodiy tahrir masalasi”, “Navoiy lirikasi va “Shashmaqom”, “Mutafakkirni bilish nazariyasi”, “Navoiy she’riyatida muhabbat maqomi” kabi 20 dan oshiq chuqur tahlillarga boy maqolalar o‘rin olgan. Jumladan, “Ijodiy tahrir” nomli maqolasida N. g‘azallarining semantik-struktur tahlili amalga oshiriladi. N.ning ta’rif, tavsif, madh, vasf tipidagi ixcham kompozisiyaga ega g‘azallari asosan yetti baytdan iborat bo‘lishi, to‘qqiz baytli g‘azallari sharhi hol va mulohazaviy tipda bo‘lib, shoirning falsafiy-poetik mulohazalari asosida kengayib borishi, lirik qahramon tasvirida shikoyat motivlari, tushkun ruhiy holat ustuvor bo‘lishi, o‘n bir va undan ko‘proq baytli g‘azallarda shoir hajm jihatidan kengroq tasvir kombinatsiyalaridan foydalanishi, umuman, N. g‘azal hajmiga muvofiq kompozitsiyani tashkil etishi, tasvir usullarining o‘zgarib borishi, baytlar semantikasi, maqta’dagi fikrning g‘azal strukturasida tutgan o‘rni kabi masalalarni tahlil qiladi. G‘azallarning dastlabki devonlardan “X.M.”ga ko‘chib o‘tish jarayonida ijodiy tahrir qilingani ko‘rib chiqiladi. “Navoiy ijodida turkona uslub muammolari” nomli maqolasida turkona va turkigo‘y so‘zlarini asoslaydi. N. gacha turkigo‘y shoirlarning yetishib chiqqani, turkona uslub ular va N. ijodi orqali yuzaga kelgani, bu uslub mavzu, vazn, mazmun, tasvir uslubi tufayli forsiy she’riyatdan alohidalik kasb etganini dalillaydi. Umuman, kitobdan N. lirikasi haqida chuqur tahlillarga boy ma’lumotlar o‘rin olgan. Kitobning ikkinchi qismida Jomiy, Lutfiy, Bedil ijodi, Abullaysiylar xonadoni, shuningdek, XX asrda yashab ijod etgan atoqli adiblar haqida ilmiy maqolalar berilgan.

Ad.: *Салоҳий Д. Мутафаккир ва мумтоз шеърият. I китоб. – Самарқанд, 2018.*

R.R.

MUTAQORIB (ar. – bir-biriga yaqinlashuvchi) – fau(v)lun (1-hijo qisqa, keyingilari cho‘ziq – V – –) aslining takroridan hosil bo‘lgan bahr (fau(v)lun fau(v)lun fau(v)lun fau(v)lun – V – – / V – – / V – – / V – –). Bu bahr epik she’riyatda keng qo‘llanadi. Firdavsiyning “Shohnoma”, Nizomiyning “Iskandarnoma” dostonlari ayni vaznda yozilgan. M. turkiy she’riyatga keng kirib kelgan dastlabki bahrlardan bo‘lib, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilik” asari shu vaznda yaratilgan.

O‘zbek adabiyotida M. bahriga mansub 8 vazn qo‘llanib kelgan. N. uning turli vaznlarida 75 ta she’r, jumladan, 51 ta g‘azal yozgan. M-n, quyidagi matla’li g‘azali M.i musammani mahzuf vaznida bitilgan:

Labing sori tokim nazardur mango,
Yosh o‘rnida xuni jigardur mango.

N.ning “S.I.” dostoni ham xuddi shu – M.i musammani mahzuf vaznida yaratilgan. Chunki jangnoma tipidagi dostonlar M. bahrida yozilgani ma’lum.

M.i musammani mahzuf va maqsur vaznlaridagi she’rlar “Soqiynomayi sarvinoz”, “Talqinchayi navro‘zi sabo”, “Soqiynomayi savti ushshoq”, “Dugoh” taronasi, “Bayoti Sheroziy V”, “Dugohi Husayn VII” kabi kuylarga mosdir.

N. “M.A.”da M. bahrining 11 vaznini ko‘rsatib, ularning har biriga misollar keltiradi. Bobur esa “Muxtasar” asarida uning 42 vaznining har birini ohang xususiyatlari b-n ko‘rsatib beradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Бобур. Мухтасар. – Т., 1971; Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т., 1998; Ҳожиаҳмедов А. Навоий арузи нафосати. – Т., 2006.*

E.O.

MUTTAHARI UDIY (XV asr) – hofiz, sozanda, bastakor. Hirotning mashhur musiqa namoyandalaridan. Ud nomli cholg‘u asbobini chalish va uning jo‘rligida qo‘shiqlar ijro etishda mohir bo‘lgan. “Xam.M.” asarida u qatnashgan bir majlis va u kuylagan qo‘shiq haqida hikoya qilinadi. “Bir kechasi bir ulug‘ kishi mahallida jamoati azizlar xizmatida tushtum. Muttahari Udiykim, xushovozliqda Zuhraning otasi va xushxonlikda aning farzandi ruhafzosi bo‘la olur erdi”.

N. “X.M.”da M.U.ni ta’riflab: “xushovozlikda Zuhraning (q.) otasi va xushxonlikda aning farzandi ruhafzosi bo‘la olur erdi”, – deb yozadi. Kunlarning birida N. ishtirok etgan anjumanda M.U. Xusrav Dehlaviyning:

Zihi daruneyi dilho zamon zamon ba tu mayle

Tarj: Qanday yaxshi, ko‘ngil ich-ichidan har zamon-har zamon senga moyil bo‘ladi, deb boshlanadigan g‘azaliga bastalangan qo‘shiqni ijro qilar ekan,

Misoli qatrayi boron sirishki man
hama durr shud,
Chunin asar dihad, al haq, tuluyi
chun tu Suhayle! –

Tarj: Mening yomg‘ir qatrasidek ko‘z yoshlarim inju bo‘ldi, chindan ham sening Suhayl yulduzi kabi chiqishing shunday ta’sir qiladi.

Baytga yetganda, majlis ahlidan ba’zilari “durr shud” o‘rniga “xun shud” deb aytgil, zero, bu baytda “durr shud”ning ma’nosi yo‘q, deya M.U.ga e’tiroz bildiradilar.

N.dan fikr so‘raganlarida u xonanda aytgan, ya’ni “durr shud” to‘g‘ri deydi. N. taklifi b-n bu baytda “durr shud” iborasi munosibroqmi yoxud “xun shud”mi degan bahs yechimiga Jomiyni hakam qilib, huzuriga xat yo‘llaydilar. Birozdan so‘ng Jomiydan quyidagi misra bitilgan javob keladi:

Suxan durr ast-u taalluq ba go‘shi shah dorad.

Tarj: So‘z – injudir, shoh qulog‘iga taalluqi bor.

N. bunday qisqa va ma’nodor javobni maqtaydi va “Tonglasi bu so‘z shuhrat tutti. El yod tutub, majolisdan naql qilurlar edi”, deb yozadi. Bu voqeiy hikoyat N. b-n Jomiyning badiiy ijod namunalariga bir xil qarashlarini ham namoyon qiladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамсат ул-мутаҳаййирин. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011.*

M.A.

MUTOBAQA (ar. – ikki narsani o‘zaro muvofiq keltirish) – bayt misralarining o‘zaro birbiriga muvofiq kelishiga asoslangan ma’naviy san’at. M. baytlar va bandlararo ham bo‘ladi. V.Rahmonovning yozishicha: “Mutobaqa usulini qo‘llagan muallif baytdagi har ikkala misrani bir xil sintaktik qolipga joylashni lozim topadi. Bu usul, o‘z-o‘zidan ma’lumki, materialning tezroq singishiga yaxshi ko‘maklashadi. Gap tuzilishidan bir xillik asosiy holatlarda talaffuz va ohang o‘xshashligi bilan belgilanadi”. Olim uni mavzuiy yoki mantiqiy, ritmik va simmetrik, deb guruhlarga ham ajratadi. Bunda gapning ma’no va shakl jihatdan qurilishi inobatga olinadi. Birida voqea holatning yondosh tasvirlanishi e’tiborda tutilsa, ikkinchisida yonma-yon misralardagi tovushlar muvofiqligiga diqqat qaratiladi. Simmetrik M. esa ma’no takroridir – so‘z o‘yini vositasida har ikkala misrada ham bir ma’no aks etadi, lekin bu usul ma’noga urg‘u berish va uni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Atoulloh Husayniyning yozishicha: “Ikki muqobilni bir kalomda jam’ qilg‘ach, alar bir kalomda mazkur bo‘lmoq sifatinda bir-biriga muvofiq bo‘lur”.

M. san’atida N. mahorat b-n foydalangan. M-n:

Agar yo‘q odamilik menda-vu yorimda,
tong ermas –
Ki, Majnunda kishilik yo parida
bo‘lmas insonlik.

Bu yerda shoir o‘zi va yorida odamiylik yo‘qligini Majnun va parida odamiy yo‘qligi b-n muvofiqlashtirmoqda. Chunki u o‘zini Majnunga, yorini pariga o‘xshatmoqda. Shu tariqa o‘zaro nomuvofiqday ko‘ringan ikki misra ayni jihatlarga ko‘ra muvofiq kelmoqda.

Baytda tashbeh, laff-u nashr, mazhabi kalomiy kabi qator san’atlarni ham ko‘ramiz: shoirning o‘zini Majnunga, yorini pariga o‘xshatishida tashbeh, oshiqning Majnunga, ma’shuqaning pariga nisbati borligida (bayt qurilishi bo‘yicha) laff-u nashr, o‘zi va yorida odamiylik yo‘qligining Majnun va parida odamiylik yo‘qligi b-n dalillanishida mazhabi kalomiy san’atlari mavjud.

Yoki:

Jafoda bor ul oy gardung‘a monand,
Atog‘a o‘ylakim, xislatda farzand.

Bu yerda yorning jafo ko‘rsatishda falakka o‘xshashligi farzand fe’lining otaga tortishi b-n muvofiqlashtirilmoqda.

Mana bu bayt esa grammatik qurilishi jihatidan M. san’atiga misol bo‘la oladi:

O‘zga mulk, o‘zga diyor, o‘zga daman,
O‘zga xalq, o‘zga makon, o‘zga vatan.

Quyidagi baytda ritmik M. mavjud:

Hayratda vuhush vahshatimdin,
Mehnatda tuyur mehnatimdin.

M. ma’noni kuchaytirish va jarangdorlikni ta’minlash jihatidan o‘ziga xos ahamiyatga ega.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойеъ ус-санойеъ (А.Рустамов тарж.). – Т., 1981; Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Л., 1972.*

E.O.

“MUTU QABLA AN TAMUTU” – “O‘lmasdan burun o‘ling”, mazmunidagi hadis. Tasavvuf maslagining shakllanib, rivojlanishida Muhammad payg‘ambar (s.a.v.)ning bir qancha hadislari nihoyatda muhim ahamiyat kasb etgan. Ushbu hadis shulardan biri. So‘fiy orif, eran, abdol – xullas, Haq oshiqlari u-n ushbu hadis axloqiy bir dastur va amaliy hayot nizomi bo‘lgan. Xoja Ahmad Yassaviyning ayrim hikmatlari shu hadisning she’riy tafsiri o‘laroq yaratilgan bo‘lsa, ba’zi to‘rtliklarida uni iqtibos qilib keltirgan. Bir hikmatda “O‘lmastan burun jon bermakin dardin torttim…”, – deyilsa, boshqa birida:

“Mutu qabla an tamutu” xok bo‘lmaklik,
Oshiqlari o‘lmas burun o‘lar ermish, –

deya ta’kidlanadi. Baytdagi “xok bo‘lmaklik” iborasi pok bo‘lish, tozalanish, nafsoniy histuyg‘ularni yengish mazmunini ifodalaydi.

N. “M.N.” tazkirasida yozishicha: “So‘fiy Piri Sesadsola – darvesh Husaynning nabirasidur. Va Mavlono Muhammad Chohuning o‘g‘lidir. So‘filiqqa tabobatni zam qilibtur. Go‘yo maraz riyozatin tortqon soliklarga “mutu qabla an tamutu” irshodin qilur”. Demak, So‘fiy Piri Sesadsola so‘fiylikka tabobatni birlashtirar ekan, ham jismoniy, ham axloqiy-ma’naviy xastalikdan qutulish yo‘l-yo‘rig‘ini ko‘rsatgan. N. bir qator she’rlarida, jumladan, “Ey ko‘ngul, kelkim, balo bazmida jomi g‘am tutay, O‘z qatiq holimga o‘lmastin burun motam tutay”, matla’li g‘azali va “Haq yo‘lida nafsingg‘a o‘lim kosasini tut” misrasi b-n boshlanadigan ruboiysining yozilishida mazkur hadisning ta’siri aniq seziladi. Va ularda uning siri yangicha badiiy talqin qilingan.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011. Аҳмад Яссавий. Девони ҳикмат. – Т., 2006; Иброҳим Ҳаққул. Ирфон ва идрок. – Т., 1998.*

I.H.

MUFLISIY (taxallusi; to‘liq ismi: Mir Muflisiy Mashhadiy) – shoir. Mashhadda tug‘ilib, shu yerda tahsil olgan. M. taxallusi b-n xalq ichida mashhur bo‘lgan. Ilm talabida ko‘p kezgan va o‘z davrining fozillaridan biriga aylangan. Yoshligidan she’r yozgan. N. “M.N.” tazkirasida ma’lumot berishicha, M. Mashhad sayyidlaridan bo‘lib, katta iste’dod sohibi bo‘lgan. Lekin unga ilohiy jazba yetishib, o‘zini ko‘p ranj-u riyozatlarga solgan. Aql-u hushidan ajralib, qo‘li va barmoqlariga halqalar solgancha o‘zi b-n o‘zi gaplashib yurgan. Undan ko‘p odatdan tashqari ishlarni ham naql qiladilar. Hushyorligida yaxshi she’rlar yozgan. Junun g‘alaba qilganida quyidagi baytni ko‘p o‘qigan:

Baloyi margu anduhi qiyomat,
Chu chanbar soxt moro naxli qomat.

Tarj.: O‘lim xavfi-yu qiyomat qayg‘usi qomatimiz daraxtini chambarday egib qo‘ydi.

M. o‘z ahvoli haqida shunday degan:

Xalq go‘yad Muflisiy devona shud,
Lojaram devonagi az muflisist.

Tarj.: Xalq Muflisiyni devona bo‘libdi, deydi. Devonalik muflislik (qashshoqlik, faqirlik) dan ekanligi ma’lum-ku.

Qabri Mashhadda, Xoja Xizr langarida.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10-жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10-жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 2. – Душанбе, 1989.*

E.O.

“MUFRADOT” – N. qalamiga mansub risola. Fors-tojik tilida yozilgan va muammo janriga bag‘ishlangan. Asar 1485-y.da yaratilgan.

Ma’lumki, N. muammo janrida ham barakali ijod qilgan va mazkur she’r turining rivo-

jiga ulkan hissa qo‘shgan, U o‘zbek tilida 52 ta, fors-tojik tilida 500 ga yaqin muammo yozgan. Uning o‘zbek tilidagi muammolari alohida ahamiyatga molik, zero, fors-tojik adabiyotida muammo keng tarqalgan bo‘lib, N.ga qadar va uning davrida ham ko‘plab ijodkorlar ushbu janrga murojaat qilgan va uning go‘zal namunalarini yaratgan. Turkiy tilda esa N.ga qadar biron-bir shoirning muammo yozgani ma’lum emas. N. bu janrni o‘zbek adabiyotiga olib kirdi, shu b-n birga, fors-tojik adabiyotida ham muammo janrining rivojiga o‘z hissasini qo‘shdi. Ulug‘ shoir bu b-n kifoyalanmay, muammoning nazariy masalalari xususida ham bosh qotirdi va ana shu izlanishlar natijasi o‘laroq, “M.” asari maydonga keldi. N.ga qadar Sharafiddin Ali Yazdiy, Abdurahmon Jomiy, Husayn Muammoiy, Muhammad Badaxshiy, Yusuf Badiiy kabi ijodkorlar muammo risolalarini yozganlar. N., shubhasiz, bu asarlarni mutolaa qilgan, yutuq va kamchiliklaridan ogoh bo‘lgan. Ularning N.ni qanaotlantirmagan asosiy kamchiliklari shundan iborat ediki, mualliflar ma’lumotlarni taqdim etishda muayyan bir izchillikka, ma’lum bir ketma-ketlikni taqozo etuvchi tartibga rioya qilmagan, turli qoida va usullar b-n yechiluvchi muammolar aralashtirib yuborilgan edi. Bu haqda N. o‘zining “Xam.M.” asarida hikoya qilishicha, u muammo fanini nazariy asoslagan Sharafiddin Ali Yazdiydan tortib yaratilgan barcha risolalarda muayyan tartib yo‘q, istilohlar yaxlit tizimga solinmagan, degan andishasini Abdurahmon Jomiyga izhor qilganida ustozi uning bu fikrini ma’qullab, javob tariqasida muammo haqida risola yozadi. Lekin N. uni tushunish murakkabligini, bu borada o‘rganuvchilar u-n soddaroq va osonroq risola yaratish niyatida ekanligini bildiradi va uning roziligi b-n “M.”ni bitadi. “Qabul nishonasi bundan o‘tmaskim, bu borada shuncha risolalar bo‘lishiga qaramay, ustoz farzandlariga o‘qish u-n mening risolamni tavsiya etdilar”, – deydi N. mamnuniyat b-n.

U yuqoridagi kamchiliklardan xoli, qoida va keltirilgan misollar bir-biriga mos bo‘lgan risola yaratishni maqsad qildi va tez orada bu ishni amalga oshirdi. Asar muqaddimasida muallif o‘z davrida muammoning katta shuhrat topgani, o‘quvchilar, xususan, yoshlarning ushbu she’r turiga qiziqishi katta ekanligini qayd qiladi va o‘z risolasining ushbu janrni o‘rganishga kirishgan qiziquvchilarga foyda keltirishiga umid bildiradi. Xondamirning xabar berishicha, “ushbu qimmatli asarni yozib, kitob holiga keltirish orqali o‘ta muhim ixtironi amalga oshirgan. Chunki dalil sifatida keltirilgan muammo ko‘rinishidagi amallarning har birida shunday holat kuzatiladiki, (muammo bo‘lib kelayotgan) ushbu amalni yechish uchun keyin eslatiladigan amallarni bilishga bog‘liq bo‘lmaydi”.

Bu risolani Jomiyga yuborganida, u shunday ta’riflaydi:

Rasuli do‘st ba dastam yake risola supurd,
Risola, ki zi dil ranji dersola biburd.

Ba har satre zi nasrash chun bari pay,
Shavi orif ba asli kulli az vay.

Chu nazmashro ba lavhi dil nigori,
Zi har bayte az on nome barori.

Tarj.: Do‘stimning elchisi qo‘limga bir risola topshirdiki, bu risola ko‘ngildan ko‘p yillik qayg‘ularni olib ketdi. Agar nasrining har bir satrini anglab yetsang, uning asl haqiqatidan voqif bo‘lasan. Agar nazmini ko‘ngil lavhiga naqsh etsang, uning har bir baytidan bir nom chiqarasan.

N. risolasida nazariy ko‘rsatmalar qat’iy bir izchillikda, lo‘nda va tushunarli tarzda bayon etilgan. Muallifning muammoga va muammo amallariga bergan ta’riflari aniq-ravshanligi, ilmiyligi, ixchamligi b-n ajralib turadi. “M.” an’anaga ko‘ra hamd va na’t b-n boshlanadi. So‘ng risolaning yozilish sababi bayon qilinib, muammoga ta’rif beriladi. N., eng avvalo, muammo amallarini guruhlashtiradi, har bir guruhga ta’rif beradi. U muammo amallarining uch guruhga bo‘linishi, birinchi guruh “a’mo-

li tahsili” deb atalishini va ular ismning modda va harflarini hosil qilishini, boshqa bir guruh esa shakl va tarkibga tegishli ekanligini va ular “a’moli takmila” deb atalishini, uchinchi guruh amallar esa osonlashtirish u-n xizmat qilishi va “a’moli tashiliy” deb atalishini bayon qiladi. So‘ngra ana shu uch guruhga mansub o‘n besh amal, ularning turlari haqida ma’lumot beriladi va misolllar keltiriladi. Muammo amallarini 3 qismga bo‘lib, 1-qismda uning 4, 2-qismda 8, 3-qismda 3 ko‘rinishini ko‘rsatadi va 43 ta uslub qoidalarini bayon qiladi hamda ularning har biriga bittadan yoki bir nechtadan misol keltiradi. Risolada jami 121 ta muammo berilgan.

M-n, birgina intiqod amaliga o‘n to‘rtta misol keltirilgan. Bular Odam, Malik, Valad, Vali, Omiliy, Kiy, Shams, Vali, Ubayd, Xurram, Rukn, Zangi, Salami, Amon ismlariga bitilgan muammolardir. Tahlil amaliga uchta (Shams, Mazid, Taqiy), tarkibga ikkita (Qaro, Ziyo), tabdilga oltita (Burhon, Karkin, Qadam, Sharaf, Behzod, Jomiy) misol keltirilgan. Bunda N. yuqorida o‘zi aytib o‘tgan tamoyilga rioya qilgan holda misollarni bayon qilingan qoidaga mos tarzda tanlaydi. Bu o‘quvchiga, xususan, muammo fanini o‘rganishga kirishgan kishiga u yoki bu amal yoxud usulning mohiyatini tez va oson tushunib olishiga imkon yaratadi. M-n, muallif muammoda keladigan “oxir”, “nihoyat”, “po”, “doman”, “poyon”, “durdi”, singari so‘zlar muammo undagi so‘zlarning oxirgi harflarini olish va qo‘shish orqali yechilishiga ishora qilishini aytadi va “Valad” ismiga bitilgan muammoni keltiradi:

Chun kuni gashti chaman bahri tarab,
Poyi sarv-u gul, shamshod talab.

Bunda sarv, gul, shamshod so‘zlarining oxirgi harflari olinadi va “Valad” ismi hosil bo‘ladi. Risolaning boshqa qismlarida ham kerakli ma’lumotlar o‘quvchiga ana shu tarzda taqdim etiladi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, “M.”-dagi muammolar shunchaki ism chiqarish, yoki shaklbozlik u-n yozilgan zo‘rma-zo‘raki she’rlar emas. Ular o‘ziga xos badiiy-estetik qimmatga, shakl va mazmun uyg‘unligiga ega bo‘lib, muayyan ijtimoiy-axloqiy, falsafiy fikrlarni ham aks ettiradi. M-n, “Shohid” ismiga bitilgan ushbu muammoda adolat g‘oyasi o‘z ifodasini topganini ko‘rish mumkin:

Shak nest, k- ahli olam dar soyaash daroyad,
Shohe, ki az adolat dilh hameraboyad.

Tarj.: Adolati tufayli dillarni olgan shohning soyasiga butun olam ahli kirishiga shak yo‘q.

Muammodagi misralar qatiga biror so‘z yoki kishi nomi yashirilgan bo‘lib, unga ishora qilinadi. O‘quvchi o‘sha ishoraga binoan yashirilgan so‘zni topadi. N. risolada yashiringan so‘zni qanday topish usullarini aniq ko‘rsatib bergan. M-n, Odam ismiga yozilgan bir muammo:

Dili moro chu xohi boz justan,
Zi oh-u dard-u mehnat jo‘naxustash.

Tarj.: Mening ko‘nglimni yana topmoqchi bo‘lsang, uni oh-u dard-u mehnat so‘zlarining birinchi harflaridan izlaganing ma’qul.

Muammo yechimi: “Naxustash” (birinchisidan) ishorasiga asosan آه – “oh”, درد “ – dard” va محنت – “mehnat” so‘zlarining birinchi harflari olinsa, مدآ – “Odam” ismi hosil bo‘ladi.

S.Ayniyning ta’kidlashicha, Jomiy risolani o‘qigach, oxiriga muallif va asarni ta’riflab bir ruboiy va xotima ilova qilgan. Mana o‘sha ruboiy:

In nusxa, ki shud ba yumni sa’yi tu tamo,
Mahbubi taboye’i xavos astu avom.
Dar fanni muammo chu mashohiri kirom,
Kas chun tu nadidam, ki burun orad nom.

Tarj.: Sening ezgu harakating tufayli yuzaga kelgan bu risola barcha toifaning sevimli asariga aylanishi shubhasiz. Muammo fanining hozirgacha o‘tgan bilimdonlari orasida sendan o‘tadiganini ko‘rmadim.

N.ning fors-tojik tilidagi 500 muammosidan 373 tasi va o‘zbek tilidagi “N.Sh.” devonidan o‘rin olgan 52 ta muammosi bizgacha yetib kelgan. Shoirning ikki tilda yaratgan she’riy va nasriy asarlari tarkibida ham yuzlab muammo va muammo unsurlari mavjud. Ularni yechish u-n “M” risolasi o‘ziga xos ochqich bo‘lishi shubhasiz.

Darhaqiqat, mazkur risola o‘z davrida ham, undan keyin ham katta shuhrat qozongan. Muammolarning katta qismi ishqiy mazmunda ekanligini ham qayd etish lozim. Umuman olganda, N.ning “M.” asari muammo janrining rivojida muhim ahamiyat kasb etgan, mazkur janr taraqqiyotiga xizmat qilgan risola bo‘lib, shoirning ilmiy-adabiy merosida o‘ziga xos o‘rin tutadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Муфрадот. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Ғиёсиддин Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Т., 2015; Абдуқодиров А. Амир Алишер Навоий. – Хўжанд, 2013; Ўзбек адабиёти тарихи. 5 жилдлик, 2-жилд. – Т., 1977.*

Q.E.

MUXAMMAS (ar. – beshlik) – musammat turlaridan biri, besh misrali bandlardan tashkil topgan she’r shakli. Bunda 1-bandning barcha misralari o‘zaro (aaaaa), qolgan bandlarning dastlabki 4 misrasi o‘zaro, oxirgi misrasi esa 1-band b-n bir xil qofiyalanadi (bbbba, vvvva va h.k.). M. mumtoz she’riyatda keng tarqalgan janr bo‘lib, u 2 xil bo‘ladi: 1. Mustaqil M. Bunday M. Sharq adabiyotshunosligida “ta’bi xud muxammas” (ya’ni o‘zi yozgan) deb yuritilib, u muayyan shoirning o‘zi tomonidan yaratiladi. M-n, “X.M.”dan N.ning 10 ta M.i o‘rin olgan bo‘lib, shundan 7 tasi mustaqil. Lekin ularning barchasi keyinchalik shoirning o‘z g‘azallarini davom ettirish asosida yaratilgan. 2. Taxmis. Bu boshqa shoir g‘azaliga bog‘langan M. hisoblanadi. Bunday M. boshqa shoir g‘azalidan ta’sirlanish mahsuli bo‘lib, unda o‘zi ilhomlangan g‘azaldagi mavzu va fikr davom ettiriladi va rivojlantiriladi. Bunda dastlabki 3 misra M. bog‘lovchi shoir qalamiga mansub bo‘lib, keyingi 2 misra g‘azal muallifiga tegishli bo‘ladi. Taxmisning oxirgi bandida har ikki shoirning taxallusi keltiriladi. M-n, N. Lutfiyning 3 ta g‘azaliga taxmis bog‘lagan.

Ey labing Iso damidek xasta jong‘a
choraras,
Vah, necha g‘amzang Navoiy qatlin
etgay multamas,
Ul muborak ko‘nglunga bo‘lg‘ay
muyassar bu havas,
Lutfi(y)ni boshtin yana tirguzsang,
ey Isonafas,
Kim, yetibdur, vah, ani o‘lturgali
hijron g‘ami.

Taxmisning shoirning o‘z g‘azaliga bog‘langan ko‘rinishi ham uchraydiki, N.ning 7 ta muxammasining barchasi o‘z g‘azallariga bog‘langan.

M. asosan ishqiy mavzuda yoziladi. Lekin u mavzu jihatidan cheklanmay, ma’naviy-axloqiy, pand-nasihat, zamonadan shikoyat, hazil-hajv mavzularida ham M.lar yoziladi.

XVII asrdan boshlab o‘zbek she’riyatida M. navislik misli ko‘rilmagan darajada rivojlandi. XIX asrda M.lardan iborat alohida to‘plamlar tuzildi. M-n, Ahmad Tabibiy M. janrida samarali ijod qilib, Sa’diy, Jomiy, N., Zebunniso, Munis, Ogahiy, Mirzo G‘olib g‘azallariga jami 518 ta M. bog‘lagan. Shuningdek, “Majmuati muxammasoti ash-shuaroyi Feruzshohiy” (“Feruzshoh davri shoirlari yozgan muxammaslar majmuasi”) ni tuzgan.

Ad.: *Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Т., 1983; Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2010.*

D.A.

MUXOTAB – 1. Xitob qaratilgan kishi, ya’ni, murojaat qilingan shaxs. 2. Nomiga xat, sovg‘a-salom yuborilgan shaxs, ya’ni adresat. N.

“Xam.M.”da Jomiy vafoti munosabati b-n atrof viloyatdagilar unga ta’ziya bildirganlari haqida yozadi va Badiuzzamon mirzoning Astroboddan maxsus kishi orqali liboslar yuborib, undan ko‘ngil so‘raganligini qayd etar ekan o‘zini muxotab deb ataydi: “Dog‘i soyir azizlarkim, atrofdag‘i viloyatdin alarning azosi uchun keldilar... faqirni-o‘q sohib a’zo tutub, so‘rmog‘ rasmin mar’iy tuttilar. Hattokim, hazrati saltanatshior, xilofatdisor Sulton Badiuzzamon mirzo (abadallohu taolo zilola shafqatihi a’lo maforiqil-muhibbin ila yavmiddin) Mozandaron mulkidin kishi yiborib, alar a‘zosi uchun barig‘a liboslar iltifot qilib erdilar ham muxotab faqir erdim...”

Ad.: *Алишер Навоий. Хамсат ул-мутаҳаййирин. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Навоий асарлари учун қисқача луғат. Тузувчи Б.Ҳасанов. – Т., 1993.*

Q.E.

MUXTARA’ (ar. – ixtiro qilingan; kashf qilingan, yangidan yaratilgan) – N. “D.F.”dagi birovga tatabbu’ qilinmagan, birovning uslubida yozilmagan, o‘zi kashf etgan qofiya va radifda yozgan g‘azallarini shu nom b-n ataydi. Devonda ularning adadi 80 ta.

Ma’lumki, “D.F.”, asosan, shoirning buyuk forsiy salaflariga tatabbu’ va ularning tavrida yozilgan g‘azallaridan tarkib topgan. Ularning har biriga yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan omilga ishora qiluvchi sarlavha qo‘yilgan. Ayni paytda, devonda zullisonayn shoirning ko‘plab yangi, ohorli, boshqalarga ergashmay, o‘zi yozgan, ya’ni tatabbu’ bo‘lmagan g‘azallari ham borki, ularning tepasiga M. yoki ixtiro’ deb sarlavha qo‘yilgan. Bu b-n muallifning o‘zi tatabbu’ va original g‘azallarini ajratgan. Demak, ular N.ning o‘zi yaratgan badiiy kashfiyotlari, ohorli topilmalari. M-n:

Tu xub-u xulqi tu xub-u takallumat ham xub,
Nabuda chun tu ba xubi kase ba olam xub.

Tarj.: Sen go‘zalsan-u xulqing ham go‘zal-u so‘zing ham go‘zal. Olamda hech kishi senchalik go‘zal emas.

Ad.: *Алишер Навоий. Девони Фоний. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т., 2014; Фарҳанги забони тожики. Жилд 1. – М., 1969; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. – Т., 1984; Давлатов О. Мухтараъ. Алишер Навоий: қомусий луғат. – Т., 2016.*

E.O.

“MUXTASAR” (“Aruz”, “Risolayi aruz”, “Mufassal” nomlari b-n ham yuritiladi) – Zahiriddin Muhammad Boburning aruz nazariyasiga bag‘ishlangan asari (1524/25). Unda juzv, rukn, bahr, zihof, vazn kabi aruzning, deyarli, barcha unsurlari haqida ma’lumot berilib, ularga 73 ta turkiy va forsiy shoirlarning she’rlaridan misollar keltirilgan. Jumladan, xilma-xil bahr va vaznlar ustida to‘xtalar ekan, N. ijodidan ko‘plab misollar keltiradi. U zihoflar miqdorini 44 taga yetkazadi. Aruz ilmida birinchi bo‘lib 537 ta vaznni ko‘rsatib o‘tadi. Bobur o‘zigacha o‘zbek she’riyatida qo‘llanib kelgan 289 ta vaznni tahlil qilish b-n kifoyalanmay, aruz tizimini o‘zi ixtiro qilgan 248 ta yangi vazn b-n boyitdi. Bahrlar sonini 21 taga yetkazdi. O‘zbek xalq qo‘shiqlarining o‘lan(g), turkiy, tarxoniy turlari vaznlarini aruz qonun-qoidalari nuqtayi nazaridan o‘rganadi. Ruboiy va tuyuq janrlari vaznlarini keng tekshiradi. M-n, Bobur “M.A.”da N. ruboiy vaznlarida 4 ta xatoga yo‘l qo‘yganini aytadiki, keyingi tekshirishlar natijasida ayni xatolarning kotib tomonidan sodir etilgani ma’lum bo‘ldi. Bobur to‘g‘ri qayd etganiday, axram shajarasida bir vazn (oltinchi va sakkizinchi), axrab shajarasida uch vazn (uchinchi va to‘qqizinchi, oltinchi va sakkizinchi, yettinchi va o‘n ikkinchi), jami to‘rt vazn takror kelganligi ma’lum bo‘ladi. N.ning har shajaraning oxirida 12 ta vaznni ko‘rsatganini ta’kidlagani va keltirilgan shajaralarda xatolarning yo‘qligi vaznlarning misollar b-n keltirilgan

qismida kotib so‘zlarning o‘rnini almashtirgani (axram shajarasining sakkizinchi vazni ikkinchi ruknida) va ruknlarni xato ko‘chirgani (axrab shajarasi uchinchi va to‘qqizinchi, oltinchi va sakkizinchi, yettinchi va o‘n ikkinchi vaznlarning takrorlanishi) ma’lum bo‘ladi. N.ning bunday xatoga yo‘l qo‘yishi mumkin emas.

S.Hasanov ham “M.”da bu haqda fikr yuritilmaganidan kelib chiqib, “Fikrimizcha, Bobur “M.A.”ning xattot tomonidan yanglish ko‘chirilgan nusxasidan foydalanib keyinchalik esa mazkur ruboiy vaznlarida nuqsonlar yo‘qligi aniqlangach, bu haqda gapirishni lozim ko‘rmagan bo‘lsa kerak”, – deb yozadi.

“M.” asari b-n Bobur N. asos solgan o‘zbek aruzi nazariyasini har tomonlama takomillashtirdi va chuqurlashtirdi.

M-n, N. o‘z risolasini muxtasar shaklda bitib, faqat o‘zbek aruzini nazarda tutgani uchunmi, “M.A.”ning zihoflarga bag‘ishlangan qismida faqatgina 5 ta aslga xos o‘zgarishlar va ular asosida hosil bo‘lgan tarmoq ruknlarini sanab o‘tgan bo‘lsa, Bobur o‘zi keltirgan 10 ta aslning hammasiga xos zihof va furu’lar haqida ma’lumot beradi. 21 bahrga asoslanib, aruz doiralarini ham 9 taga yetkazadi (“M.A.”da ular 7 ta edi). N. o‘z risolasida ko‘p vaznlilik hodisasini, ruknlarning o‘zaro almashinib qo‘llanilishini nazarda tutmagan bo‘lsa, Bobur juda ko‘p ruknlarning muayyan o‘rinlarda almashinishi mumkin ekanligini ta’kidlab o‘tadi. Chunki u har bahr va uning tarkibidagi vaznlarni o‘zbek tili va she’riyatiga qanchalik muvofiqligi jihatidan ham tekshirgan va baholagan. Bu tadqiqot o‘z ichiga aruz haqida yaratilgan tadqiqotlardan mufassal va mukammalligi, ulardagi yutuqlar rivojlantirilib, qusurlar tuzatilgani, o‘z navbatida, yangi nazariy fikrlar, tahlillar, vaznlar b-n boyitilgani jihatdan muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. U nafaqat turkiy, arab va fors-tojik aruzini o‘rganishda ham qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi. Chunki aruzning biror-bir muammosi yo‘qki, “M.”da o‘z aksini topmagan bo‘lsa.

“M.” O‘zbekistonda birinchi marta S.Hasanov tomonidan tadqiq etilib, 1971-y.da so‘zboshi, izoh va ko‘rsatkichlar b-n nashr qilingan. 1972-y.da I.V.Stebleva uning faksimilesini chop ettirdi. Risola boburiylar avlodidan bo‘lgan shoir va tarjimon Azfariy tomonidan fors tiliga tarjima qilingan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Бобур. Мухтасар. – Т., 1971; Ҳасанов С. Аруз. Бобур энциклопедияси. – Т., 2014; Ҳожиаҳмедов А. Навоий арузи нафосати. – Т., 2002; Аттор Нишопурий. Мухторнома. – Теҳрон, 2008; Фаридиддин Аттор. Рубоийлар // Муҳаббат тароналари. – Т., 2005; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 2. – Душанбе, 1989; Очилов Э. Аттор абадияти // Шайх Фаридуддин Аттор. Асрорнома. – Т., 2012.*

E.O.

MUXTOROV Axror Muxtorovich (1924, O‘ratepa, Leninobod – 2009, Dushanbe) – taniqli tojik olimi, tarix fanlari doktori (1971), Tojikiston FA muxbir a’zosi (1978). M.A.M. Tojikiston, O‘rta Osiyo va qisman Afg‘oniston tarixi bo‘yicha 1952-y.dan beri jiddiy tadqiqotlar olib borgan. Olim bu borada bir qator kitoblar nashr qilgan va 200 dan ortiq maqolalar yozgan. M.A.M.ning, ayniqsa, kitobalar tarixiga oid izlanishlari diqqatga sazovordir. M.A.M. Boburning uzoq tog‘ oraliqlari Mastchohda Obburdon qishlog‘ining qabristoni chetidagi buloqboshida Bobur tomonidan toshga naqshlangan dastxatini topgan va 1954-y.da nashr ettirgan. Bu noyob tosh hozir Tojikiston tarix institutida O‘rta asrlar tarixi bo‘limida saqlanadi. M.A.M. N. maqbarasi haqida quyidagi ma’lumotlarni keltiradi: Hirotda Gavharshodbegim maqbarasi yaqinida N. oromgohi joylashgan. 1325 hijriy – 1907 milodiy yilida anchayin vayron bo‘lgan N. qabri tartibga solinadi va 1945-y. gumbazda maqbara ta’mir qilinadi. Ammo naqqoshlik ishlari chala qolib ketadi. N. qabri ustiga Kobulning mohir Gajjor (tosh yo‘nuvchi) ustalari zeb bergan nihoyatda

go‘zal qora marmar bostirilgan bo‘lib, unga shoirning birinchi biografi, mashhur tarixchi Xondamirning quyidagi ruboiysi juda chiroyli xat b-n toshga o‘yib yozilgan:

Janobi Amiri hidoyatpanohi
Ki, zohir az o‘ gasht asori rahmat.

Shud az xorzori jahon so‘y bog‘e
Ki, on jo shukuftaast gulzori rahmat.

Chu nozil shud anvori rahmat ba ruhash,
Biju soli favtash zi “anvori rahmat”

Tarj.: To‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishlik panohi, undan rahmat belgilari zohir bo‘ldi, Jahon tikanzoridan bog‘ tomon eltdiki, u yerda rahmat gulzori ochildi, Rahmat nurlari ruhga (tomon) indi. Vafoti yilini “anvori rahmat” (so‘zlaridan axtargil).

“Abjad” hisobida “anvori rahmat” so‘zlaridan 906/1501-y. kelib chiqadi.

Hozirgi kunda N. maqbarasi qadimgi yodgorlik sifatida saqlanadi va u hirotliklar hamda mehmonlarning go‘zal ziyoratgohlaridandir.

Ad.: *Мухторов А. Ах паи таърихи куҳан. – Душанбе, 1975.; Мухторов А. Библиография ученых Таджикистана. Вып. 28. – Дашунбе, 1984.*

S.G‘.

MUSHTARIY (Birjis) – Quyosh sistemasidagi sayyoralardan biri sanaladi. Hozirgi zamon astronomiyasida Yupiter deb yuritiladi. Sharqda musulmonlar M. deb atagan. Bundan tashqari Sharqda unga nisbatan Birjis atamasi ham qo‘llanilgan. O‘rta asr olimlarining falakiyot haqidagi tasavvurlariga ko‘ra, u oltinchi osmonda turadi, deb hisoblangan. Sharq adiblari uni “Sa’di akbar” deb ham ta’riflaydilar. Sharq mumtoz adabiyotida M. ulug‘lik, yuksaklik, baxt-saodat ramzi sifatida qo‘llanadi.

N. asarlarida M.ning osmon jismi sifatida tilga olinganini ham, shuningdek, timsol sifatida qo‘llanganligini ham ko‘rish mumkin. “F.Sh.”-ning 5-bobida me’roj kechasi payg‘ambarning M.dan o‘tgani, yettinchi, sakkizinchi osmonlarga ko‘tarilgani shunday tasvirlangan:

Tushub chun Mushtariy sori mururi
Quyoshni yoshurub har lam’a nuri.

Qolib yettinchi qo‘rg‘on posboni,
O‘tub chobuksuvori osmoniy.

Kirib chun sekkizinchi toram ichra,
Topib har dam o‘zin bir olam ichra.

“L.T.”ning me’rojga bag‘ishlangan bobida esa N. M.ni “Sa’di Akbar” (katta qutlug‘ yulduz) deya tilga olgan:

Sa’di Akbar sori chun qildi guzar,
Topti ul nuri saodatdin nazar.

“S.I.”dostonining so‘z ta’rifi hamda Nizomiy va Xisrav Dehlaviy madhiga bag‘ishlangan bobida N. M.dan timsol sifatida foydalanib, Nizomiyning nazmida nechog‘lik buyuk bir mavqega erishganini ko‘rsatib beradi. Mushtariy buyuklik, yuksaklik ramzi bo‘lsa-da, u Nizomiy she’ri yozilgan qog‘ozni o‘pib, boshiga sanchadi:

Ne qog‘ozg‘akim qildi gavharfishon,
Qilib mehri zarkash anga zarnishon.

Etib anda oltinchi ko‘k zevari,
O‘pib, boshig‘a sanchibon Mushtariy.

N. asarlarida M. o‘zining boshqa bir nomi bilan – Birjis deb ham ataladi. “M.” asaridan olingan quyidagi ruboiyda shoir hukmdorni Zuhra va Birjis timsollari vositasida madh etadi:

Ey, Zuhra kelib mutribi bazmi tarabing,
Birjisdin ortibon hayovu adabing,
Olam elida xisrav-u xoqon laqabing
Odamg‘a degincha xon bin xon nasabing.

M.ning sa’dligi (qutlug‘ligi, baxt-soadat ramzi ekanligi) haqidagi tushunchadan kelib chiqib, N. Unga nahsiyatni daf’ qilish xususiyatini nisbat beradi. Bu hol shoirning “B.B.” devonidagi ushbu baytda o‘z ifodasini topgan:

Saodatlig‘ birovkim, g‘am tuni
nahsiyati daf’in,
Qilurg‘a chiqsa ollidin jamoling
Mushtariy yanglig‘.

Ad.: *Алишер Навоий. Бадоеъ ул- васат. 10 жилдлик, 3-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

Q.E.

MUSHOKIL (ar. – shakllangan) – foilotun (2-hijo qisqa, qolgan hijolar cho‘ziq: – V – –) aslining bir marta, mafoiylun (1-hijo qisqa, qolganlari cho‘ziq: V – – –) aslining 2 marta takroridan hosil bo‘ladigan bahr (foilotun mafoiylun mafoiylun: – V – – / V – – – / V – – –) bahr. Qarib bahrining ziddi hisoblanadi. Arab she’riyatiga xos bo‘lib, o‘zbek adabiyotida qo‘llanmaydi. N. “M.A.”da bu vaznga misol sifatida quyidagi baytni keltiradi:

Necha sensiz firoqingda fig‘on aylay,
Nola birla ulus bag‘rini qon aylay.

Bobur “Muxtasar” asarida mazkur baytni takrorlab, yana ayni bahrga mansub 17 ta vaznni o‘z misollari b-n keltiradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Бобур. Мухтасар. – Т., 1971; Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т., 1998.*

An.H.

MUSHRIF I – Mansab, lavozim. Temuriylar davrida podshoh devonida shunday mansab mavjud edi. Bu lavozim egasi boshqa devon amaldorlaridan yuqori turgan va boshliq maqomida bo‘lgan. Sulton Husayn Bayqaro hukmronligining dastlabki yilida Xoja Qutbiddin Tovus Simnoniy devon M.i vazifasini bajargan. Saroy kotibi Xoja Abdullo bu joydan umidvor bo‘lgani u-n Sulton Husayn mirzoga Simnoniy haqda turli gap-so‘zlarni yetkazib, uni shoh oldida yomonotlig‘ qilib qo‘yadi. Shuning u-n Xoja Qutbiddin Tovus M.likdan bo‘shatilgan va 300 000 tanga jarima to‘lagan. Undan so‘ng Xoja Abdullo bu lavozimni egallagan. Sulton o‘sha vaqtda taxtga da’vogarlik qilgan Yodgor mirzoga qarshi urushga ketganda, Xoja Abdullo boshqaruvni butunlay o‘z qo‘liga olgan va Xoja Baxtiyor Simnoniy b-n til biriktirib, noqonuniy ishlarni amalga oshirgan, odamlarga zulm qilgan. Natijada, Hirotda qo‘zg‘olon ko‘tarilgan. Sulton Husayn bu ishni tekshirish va adolatli hal qilish u-n N.ni poytaxtga jo‘natgan. N. Xoja Baxtiyorni qamoqqa olgan. (Xoja Abdullo oldinroq qamalgan edi). Xoja Qutbiddin Tovus yana devon M.ligi mansabiga o‘tqazilgan.

II Ega, xo‘jayin. N. asarlarida M. so‘zi shu ma’nolarda ham qo‘llangan. M-n, “M.N.”da shoir Javhariy zikrida N. uning sovunxona egasi ekani haqida shunday yozadi. “Sovunxona mushrifi ham sovunxona eshigida ko‘chaning o‘rtasida o‘zi u-n hujra yasab erdi”.

Ad.: *Алишер Навоий Мажолис ун-нафоис. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985.*

Q.E.

MU’TAFIKOT – hadis va payg‘ambarlar qissalarida nomi tilga olingan joy. Qur’oni Karimning bir necha oyatlarida bu shahar xalqi va ularning fojialari haqida xabar beriladi. “Ankabut” surasi, 28-oyatida aytiladi: “Lut (a.s.)ni Mu’tafikot qavmiga payg‘ambar qilib yubordik. O‘shanda Lut (a.s.) o‘z qavmiga aytdi: “Sizlar yomon, qabih ishlarga mashg‘ul bo‘lasizlar. Bu fe’llarin-

gizni (bachchabozlikni) sizlardan ilgari o‘tgan tamom olamlardan hech bir odam qilmagandir”. N. “T.A.H.” asarida M. haqida shunday yozadi: “...ba’zi besh shahr va ba’zi yeti shahr debdurlar va ba’zi ahli tarix bu shaharlarni Siyston bila Kirmon arosida debdurlarki, holo Lut biyobonig‘a mashhurdir. Va ba’zi Ardo navohiysidakim, Shom mulkida debdurlar”. N.ning yozishicha, bu shahar xalqiga Lut (a.s.) payg‘ambar qilib yuboriladi. Ular bachchabozlikka mukkasidan ketgan va butparast bo‘ladilar. O‘z payg‘ambarlarini da’vatiga va nasihatiga quloq solmaydilar. Natijada, Lut (a.s.) duoyibad qiladi va ularning boshiga Allohning balosi yog‘iladi. N. o‘z asarida yozishicha, “...Jabroil (a.s.) ul shahrlarni yerdin qo‘ng‘orib, osmong‘a eltib, sarnigun yerga urdi va ul eldin har kishikim, har qayda bor erdi sijjil toshi yog‘ib, borisin halok qildi. Hattoki, Lut (a.s.)ning jufti ul qavmdin erdi, ul toshdin halok bo‘ldi”.

Ad: *Алишер Навоий. Тарихи анбиёва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Муҳаммад Саййид Тантовий. Пайғамбарлар тарихи. – Т., 2021.*

S.R.

MUQBIL – lug‘aviy ma’nosi iqbolli, baxtli, toleli.

Bir ish qoldikim, bordur iqbol ishi,
Bukun muqbil-andoqki sen – yo‘q kishi.

N. ijodida M. pokiza, halol, oqil va rostgo‘y ma’nolarini ham o‘ziga jamlab, “Mudbir”ga zid ramziy obraz darajasiga ko‘tariladi.

Qullug‘ung dog‘idin o‘lsam istamon
ozodlikni
Kim, bu tamg‘odur, – nishone
mudbiru muqbil aro.

M. “S.S.”, “L.T.”, “M.Q.” tarkibidagi qator hikoyatlarda ijobiy qahramonlardan biri sifatida tilga olinadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик, 3-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

A.A.

MUQIMIY (To‘liq ismi: Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy) (1850–1903, Qo‘qon) – shoir. M. ijodi o‘zbek mumtoz adabiyotining eng yorqin sahifalarini tashkil etadi. Qo‘qonda dastlabki savodini chiqargan va she’r yoza boshlagan M. N., Fuzuliy, Mashrab, Amiriy asarlarini mutolaa qilib, ulardan mahorat sabog‘ini olgandan keyin 1872–1873-yy.da Buxoroga borib, “Mehtar oyim” madrasasida tahsilni davom ettiradi. M. Buxorodagi tahsil yillarida fors-tojik adabiyoti b-n ham chuqur tanishadi: Sa’diy Sheroziy, Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Mirzo Bedil kabi Sharq so‘z san’atining zabardast namoyandalari ijodidan bahramand bo‘ladi. M., avvalo, N. va boshqa forsigo‘y shoirlardan bir umr o‘rgandi, ulardan ta’sirlandi, ularga ergashdi. Bu ta’sirni uning butun ijodida, xususan, ularning g‘azallariga yozgan tatabbu’larida, bog‘lagan muxammaslarida ko‘rish mumkin.

Qo‘qonda M., Furqat, Zavqiy, Muhayyirlar ishtirokidagi bir adabiy to‘garak faoliyat ko‘rsatib, uning dovrug‘i uzoq-uzoqlarga ketgan edi. Furqat o‘z “Esdaliklar”ida bu davraga boshqa she’riyat muxlislari havas qilishi, shinavandalar ularning she’rlarini so‘rab kelishi haqida yozadi. Aynan ana shu davralarda ham shoirlar N. she’rlarini o‘qirdilar va undan ta’sirlanib she’rlar yozardilar. Bu jarayonlarning hammasi M.ni yanada N.ga yaqinlashtirardi.

M. adabiy merosi taxminan 10 ming misrani tashkil etib, an’anaviy va hajviy yo‘nalishdagi she’rlardan iborat. Shoir lirikasida g‘azal, muxammas va murabba’ janrlari yetakchi o‘rin tutadi. M. N.ning “O‘lturg‘usi”, “Qilmading”,

“Kerak”, “Gul”, Fuzuliyning “Orzu”, “Vermaz”, “Etmazmidim”, “Sango”, Amiriyning “Qildi mujgoning”, “Xo‘b bo‘ldi”, “Muborak”, “Shirin”, “Qo‘zg‘olmasun”, Furqatning “Ko‘zlaring”, “Tanholiging”, “Chiroylik”, “O‘lturg‘usi” radifli g‘azallariga muxammaslar bog‘lagan.

N. o‘zidan keyingi nafaqat turkiy, balki butun Sharq adabiyotiga kuchli ta’sir ko‘rsatgani ma’lum. Qalam ahli bu zabardast so‘z san’atkorini o‘zlari u-n ijod yo‘lida rahnamo deb bilib, unga ergashganlar, undan mahorat sabog‘ini olganlar, boy va rang-barang merosini o‘qib-o‘rganib, undan ta’sirlanganlar, g‘azallariga tatabbu’lar qilganlar, taxmislar bog‘laganlar. Bu ilhombaxsh ta’sirdan M. ijodi ham xoli emas. U buyuk salafining qator g‘azallariga tatabbu’lar qiladi, taxmislar bog‘laydi, n.yona ohangda baytlar ijod qiladi. Jumladan, “Bor”, “Bor edi”, “Koshki”, “Gul”, “Qilmasun”, “Etmayin” kabi o‘nga yaqin g‘azallari ta’sirida ularga hamohang naziralar bitadi, “Kezarman ko‘yida yillar nazar holimg‘a solg‘ay deb”, “Qog‘oz uza qalamni fusunsoz qilmading”, “Bir kun mani ul qotili majnunshior o‘tlurg‘usi”, “Gulshan ichra yo‘qtur oromim, diloromim kerak”, “Ey latofat kasbida husnungga hojatmand gul” misralari b-n boshlanadigan badiiy barkamol va mashhur g‘azallariga taxmislar bog‘laydi. Shuning o‘zi ham M. didi baland, salohiyati yuksak shoirligini ko‘rsatadi. Jumladan, N.ning:

Kimki oning bir malaksiymo parivash yori bor,
Odamiy bo‘lsa, pari birla malakdin ori bor! –

bayti ta’sirida quyidagi misralar b-n boshlanadigan go‘zal g‘azal yaratadi:

Kimning inson xaylidin ul nozanindek yori bor,
Arzi ruxsor etsa, har qaydoq pari ham ori bor.

M.ning:

Ahd qildim – emdi sandin o‘zgani yor
etmayin,
Har guli ra’noga mundog‘ o‘zni
ko‘p xor etmayin, –

bayti esa ustoz shoirning:

Ahd qildim, ishq lafzin tilga mazkur etmayin,
Til nekim, xomam tilidin dog‘i mastur etmayin, –

bayti ta’sirida yaratilganligi ko‘rinib turibdi.

M. muxammaslarida esa qo‘shmag‘iz birlashib, yalakat mag‘izga aylanganday – u tomonidan qo‘shilgan misralarni g‘azal baytlaridan ajratib bo‘lmaydi. Bu muxammaslar xuddi shu jihati bilan badiiy barkamollik kasb etadi. M-n, quyidagi misolda N.: “Ey bog‘bon, menga sira gul bilan gulsapsar kerak emas, kokili sunbulday xushbo‘y, yuzi gulday go‘zal yorim kerak”, – deb lutf etsa, M. o‘z misralari b-n buyuk salafining ayni fikrlari binosiga o‘ziga xos poydevor yaratadi, ya’ni g‘azaldagi fikrning asosini keltirib chiqaradi: “O‘sha qoshi kamon ishqi ko‘ngillarni nishon qilganidan buyon ko‘zlarimdan yosh o‘rniga qatra-qatra qon keladi. Bas, boshimda na bog‘ havasi bor-u na bo‘ston nafasi. Shunday ekan,” deb o‘z fikrlarini ustozi fikrlariga ulab yuboradi:

To nishon qildi ko‘ngullarni o‘shal
abro‘kamon,
Qatra-qatra ko‘zlarimdin keldi
yosh o‘rnig‘a qon,
Ne havoyi bog‘ boshda,
ne dimog‘i bo‘ston,
Gul bila savsan kerakmasdur menga,
ey bog‘bon,
Zulfi sunbul atrlik, ruxsori gulfomim kerak.

Quyidagi bandda ham hamohang qalblar sadosini ko‘ramiz:

Nigorekim gapurmas durri tamkinim
usholg‘ay deb,
Boqolmasman yuzig‘a bohayolikdin
uyolg‘ay deb,
Nishon ko‘ksum hamisha tiri mujgoni
qadolg‘ay deb,
Kezarman ko‘yida yillar nazar
holimg‘a solg‘ay deb,
Agar o‘ldursa, qonim rangi
tuprog‘ida qolg‘ay deb.

“Holimga bir kuni nazar solar degan umidda yillarki yor ko‘yida kezaman. Mabodo o‘ldirgan taqdirda ham qonim rangi mahbuba tuprog‘ida qolishidan xursandman” mazmunidagi bayt ayni holatga olib kelgan sabablar tasviri b-n to‘ldiriladi va banddagi fikr hamma jihatni qamrab olgan bir butun qo‘shma gapga aylanadi: “Vazminligim gavhari usholmasin deb, nigorim so‘zga og‘iz ochmaydi. Hayosi kuchliligi sababidan uyalmasin deb, uning yuziga boqolmayman. Lekin ko‘ksim kipriklari o‘qi qadalishi uchun hamisha nishon”. Shu tariqa g‘azal va taxmis misralari o‘zaro bog‘lanib ketib, yaxlit bir bandga aylanadi.

M.ning qator g‘azallarida esa navoiyona ohanglarni, salafi sevib qo‘llagan timsol-u tashbehlarning yangi qirralari kashf etilganini, mavzuda, vaznda, qofiya va radifda, uslub va ifodada unga ergashilganini ko‘ramiz. Aytaylik, mahbubaning beqiyos husnini bir ko‘rgan borki, “surati devor” bo‘lib qolgani haqidagi xalqona tashbeh va mubolag‘a N. ijodida ko‘p qo‘llaniladi. Bu holni M.da ham ko‘ramiz:

Nogah, Muqimiy, uchrasa, ahlu hushim ketib,
Ko‘rgan yerimda surati devormen yana.

Yoki yorning begonaga oshno-yu yorga begonaligi haqidagi kinoyali lutfga yo‘g‘rilgan baytlarga N. ijodida ko‘p duch kelamiz. M. g‘azallarida ham ayni hol ko‘p uchraydi.

Yuqoridagi misollardan ham ma’lum bo‘ladiki, N. merosi M. ijodiga ko‘p tomonlama ta’sir ko‘rsatgan.

Ad.: *Муқимий. Танланган асарлар. – Т., 1958; Муқимий. Танланган асарлар. 2 жилдлик. – Т., 1960; Танланган асарлар. – Т., 1974; Муқимий. Фурқат. Завқий. Янги баёз. – Т., 1997; Ғулом Ғ. Муқимий // Асарлар. 10-жилдлик, 8-жилд. – Т., 1976; Каримов Ғ. Мавлоно Муқимий // Муқимий. Танланган асарлар. – Т., 1974; Абдуғафуров А. Муқимий // Буюк сиймолар, алломалар. 3-жилд. – Т., 1997; Очилов Э. Муқимий (Рисола) // Нафис мажлислар, 2-жилд. – Т., 2018; Очилов Э. Муқимий ижодида Навоий анъаналари // “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2020, № 4.*

S.R., E.O.

MUQRIY – qiroat qiluvchi, qori. “M.Q.”-ning “Avvalg‘i qism”i 20-fasli “Muqriylar zikrida” deb nomlangan bo‘lib, N. azon aytuvchilarning tabiati, o‘ziga xos xulq-u fazilatlariga hamda nuqson-u kamchiliklariga maxsus to‘xtaladi. N.ga ko‘ra, agar muazzin yoqimli ovoz b-n Haq ibodatiga chorlasa, unga jon fido qilmoq ravo. Shuningdek, unga poklik, tozalik yor, om-u xosga, past-u balandga, katta-kichik ko‘ngliga mutlaq, so‘zsiz ma’qul bo‘ladi, deya M.larning go‘zal axloqqa oid qirralariga diqqatni qaratadi. N. niyozmandlik qorishgan muazzinning nidosi, samimiy ohi, chaqirig‘i yomonlarni fisq-fasod kunjidan masjid sari boshqarishini fusunkor, sehrgar ilonni kuy bilan teshikdan chiqarishiga monanddir, deb hisoblaydi. Shuningdek, shoir bu ijtimoiy toifaga xos aks xususiyatlar, ya’ni ovozlari kulg‘undi, o‘zlari bo‘shashgan, nopok va vaqtga rioya etmaydigan M.lar haqida ham so‘zlab, ularning tovushini eshakdan ham battar, deb bilib, tog‘ yo minoradan uchirib yuborish a’lo, deb biladi. “M.Q.” va umuman, N.ga xos an’anaga ko‘ra, ularning qiyofasi bo‘lim so‘ngida lirik yo‘sinda ham chiziladi.

Muqriyki, erur pokro‘ va zohidvash,
Alhoni xush va husni adosi dilkash.
Jon anga fidoki, ruh etar andin g‘ash,
Agar bo‘lsa munung aksi nafas urmasa xash.

Demak, N.ning uqtirishicha, hech bir kasb egasi qadrini tushirmasligi, kasbiga munosib harakat qilish, o‘z mavqeyini yaxshi tushunishi va ularni suiiste’mol qilmasligi lozim.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. Ўгирувчи: Баҳодир Қобул. – Т., 2021.*

S.O‘.

MUQRIY MAHMUD (t.y.n. – Xorazm, 1473-74 – Hirot) – taniqli tasavvuf shayxi va imomi. Hayoti-yu faoliyatiga doir ma'lumotlar deyarli saqlanib qolmagan. N. "N.M."da yozadi: "Xorazmlikdur, husni savti a'lo darajada erdi. Va bag'oyat darvesh va pokiza ro'zgor kishi erdi. Mavlono Muhyi (a.r.) ning muridi erdi. Va o'zining ham ko'p muridlari bor erdi. Va Hiriy shahrining masjidi Jome'sida yetmish yil azon davlati anga muyassar bo'ldi. Va yoshi yuz to'rtga yetti va sakkiz yuz saksonda dunyodin o'tti. Va qabri Mavlono Sa'duddin Koshg'ariy (q.s.)ning hazirasidadur".

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

E.O.

MUQTAZAB (ar. – kesib olingan) – maf'u(v)lotu (4-hijo qisqa, qolganlari cho'ziq: – – – V) va mustaf'ilun (3-hijo qisqa, qolganlari cho'ziq: – – V –) asllarining ketma-ket takroridan hosil bo'ladigan bahr (maf'u(v)lotu mustaf'ilun maf'u(v)lotu mustaf'ilun: – – – V / – – V – / – – – V / – – V –). Munsari bahridan kesib olinganga o'xshaganligi u-n shunday ataladi. M. arab she'riyatiga xos bo'lib, o'zbek adabiyotida qo'llanmagan. N. "M.A."da M.i musaddasi solim vazniga quyidagi baytni misol qilib keltiradi:

Kelmas bizga ul kofiri qotil dami,
Vahki, bizni o'lturgusi oning g'ami.

– – – V \ – – V – \ – – V –
maf'u(v)lotu mustaf'ilun mustaf'ilun.

U M. bahrining yana 6 ta vaznini ko'rsatib o'tadi.

Bobur esa, "Muxtasar" asarida M. bahrining yana 70 vazniga misol keltiradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Бобур. Мухтасар. – Т., 1971; Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т., 1998.*

E.O.

MUG' (f.) – 1. Zardusht diniga mansub kishi; otashparast. 2. Otashparastlar ruhoniysi, zardushtiylikda u mubadlardan quyi darajada turadi. 3. Muallim, zardushtiylik ta'limotini o'rgatadigan ustoz. 4. Majoziy: mayfurush, mayxona egasi. 5. Tasavvufda: sodiq, samimiy oshiq, tolib, murid.

Azaldan dehqonchilik rivojlangan Markaziy Osiyoda may tayyorlash va uni shohlar omboriga yig'ish muhim vazifa hisoblangan. May tayyorlash b-n shug'ullanadigan M.lar ana shu imtiyozli tabaqaga mansub bo'lishgan. Islom dini kirib kelgach may tayyorlash, ichish va sotish taqiqlangan. Zardusht mayfurushlar makon tutgan eski kulbalar – xarobot keyinchalik she'riyatga mayxona timsolida kirib keldi.

May sotuvchi M. obrazi Sharq she'riyatida ilk bor mashhur arab shoiri Abu Nuvos (747/762–806/814) ijodida uchraydi. Bu an'ana keyinchalik boshqa shoirlar tomonidan rivojlantirilib, M. Sharq she'riyatining asosiy obrazlaridan biriga aylandi.

Tasavvuf she'riyatida M. – mayfurush, mayxona egasi ma'nosida kelib, yetuk, komil pirni tamsil etadi. N. ijodida M. va u b-n bog'liq mug'on, piri mug'on, mug'bacha, dayri mug'on, mayi mug'ona, dayr, xarobot istilohlari ko'p uchraydi. M-n:

El tilar mug' ko'yinu istar Navoiy mug'bacha,
Azmi maqsud aylab el, ul qasdi maqsud ayladi...
Mayda afyun ezgil, ey mug'kim, bu eski dayr aro
Telbararmen g'ussadin gar bir nafas hushyormen.

Ad.: *Бертельс Е.Э. История персидско-таджикской литературы. – М., 1960; Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. – Т., 1997; Рустамов А. Шоирнинг биринчи ғазали // Шарқ юлдузи, 1987, № 2; Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005.*

E.O., M.A.

MUG‘ANNIY – cholg‘uvchi. Mumtoz she’riyatda u – ilhom manbayi, ruh tayanchi, haqiqiy madadkor ma’nolarida talqin qilingan. Shuningdek, M. “uzluksiz yog‘ib turuvchi nur – fayzning navosini yetkazuvchi, shu ne’matdan ogoh etuvchining timsolidir. Kuy kabi oqib keladigan ushbu nur qalbni rohat-farog‘atga g‘arq etadi”. “Tasavvufda oriflar dilini ramzlar kashfi-yu haqiqatlar bayoniga to‘ldiradigan, fayz yetkazuvchi va targ‘ib qiluvchilarni mutrib (cholg‘uvchi, qo‘shiqchi, mug‘anniy) deydilar. Rabboniy olamdan ogoh qiluvchilar va komil pirlarga ham ishora qilinadi. Uning kuyi – ma’rifat, qo‘shig‘i − haqiqat” (N.Komilov). Rivoyat qilinishicha, “Odam Ato jismi loydan qorilib, tayyor bo‘lgach, unga jonning kirishi qiyin bo‘lgan, shunda kuy chalinib, kuy ta’sirida jonning tanga kirishi osonlashgan ekan.

“Hazrati Junayddan so‘radilar:

− Odam samo’ eshitgach, beixtiyor harakatga kelgay. Bu hol nedan?

− Haq subhonahu va taolo “Alastu” damida Odam bolalariga xitob ayladi. Jonlar u vaqt xitobdan lazzat topib turdi. Bu olamda ham samo’ eshitganda o‘shal zavq hosil bo‘lgay-da, shubhasiz, beixtiyor harakat etgaylar”. Shu ma’noda, M. ko‘ngil istaklari, orzu-umidlarini ro‘yobga chiqaruvchi, uni zavq-u shavqqa, ishtiyoq-u yaratuvchanlikka undovchi beqiyos timsoldir. N. she’riyatida ham M. mana shunday mazmunlarni ifoda etgan:

Mug‘anniy, surude chek andoq baland,
Ki, tushsun sipehr ahlig‘a dilpisand!
Uning savtini oliy ovoza et,
So‘z ovozasini ko‘ngluma toza et!

Ad: *Комилов Н. Тасаввуф. – Т., 2009; Ҳофиз Шерозий. Ишқ гавҳари. (Изоҳлар қисми) – Т., 2006; Очилов Э. Бир ҳовуч дур. – Т., 2011; Ҳаққул И. Тасаввуф ва шеърият. – Т., 1991.*

M.A.

MUG‘ DAYRI – ichkilikxona, o‘tga topinuvchilar ibodatxonasi, majozan esa mayxona. Piri mug‘on forscha so‘z bo‘lib, u quyidagi ma’nolarda qo‘llanadi: 1. Mug‘lar piri; zardushtiylar rahnamosi, otashparastlar qavmi sardori. 2. Majozan: mayxona boshlig‘i, mayfurush. 3. Tasavvufda ruhoniy rahbar, yetuk murshid, komil inson. Piri mug‘on – shayx, murshid. Undan Muhammad (s.a.v.) va piri komilning sifatlari ham ko‘zda tutiladi. Muhammad (s.a.v.) shaxsiga va yetuk murshidga ham ishora qilinadi. Binobarin, Ahmad Yassaviyning o‘z hikmatlarida Muhammad (s.a.v.)ga piri mug‘on sifatini berishi bejiz emas:

Piri mug‘on Haq Mustafo beshak biling,
Qayga borsang, vasfin aytib, ta’zim qiling.

M.D. tasavvufda orif va avliyolar majlisini, suhbatini bildirsa, bu istiloh mumtoz she’riyatda mayxonani anglatadi.

Mug‘ so‘zining lug‘aviy ma’nosi otashparast, ba’zan u otashparastlar ruhoniysini ham bildiradi. Majozan mug‘ – piri komil. “Pir yoki orif deb tasavvuf ahli aql-u donishda yetuk, ma’rifat nuri bilan qalbi limmo-lim, pok niyat, pokiza axloqli zakiy odamni nazarda tutganlar. Pir ko‘ngil mahrami, hamdard, hammaslak kishi”dir. Mug‘bacha esa majusiy, otashparast, o‘tga topinuvchi; tasavvufda sadoqatli va samimiy murid, tolib, oshiqni anglatadi.

May mavzusidagi she’rlarda, jumladan, g‘azallarda, soqiynomalarda mug‘bacha va piri mug‘onga ham ko‘p murojaat qilinadi. N. g‘azallaridan birida ko‘nglini mug‘bacha (Haq oshiqlari, mayxonadagi muridlar) olgani u-n mug‘ona (oshiqona) qadahlar ko‘tarishni va ular safida bo‘lishni istaydi. Chunki, endi mast ko‘ngil b-n sog‘ yurishning iloji yo‘q, deydi:

Ko‘ngulni mug‘bacha oldi mug‘ona tut aqdoh,
Ki yo‘q saloh ila bo‘lmog‘liq emdi bizga saloh.

Quyidagi baytda esa boshqacharoq manzaraning guvohi bo‘lamiz. Bu o‘rinda endi lirik qah-

ramonga – oshiqqa iltifot qilmagan mug‘bachadan ko‘ngil uzish tavsiya qilinadi. Bu o‘rinda o‘z vazifasini, mas’uliyatini his qilmagan oshiqlarga may ulashadigan, xizmat qiladigan murid tanqid ostiga olinadi. Nega? Chunki u mayxonada xalq bilan emas, oshiqlar bilan hamnafas bo‘lishi va oshiqlarga iltifot ko‘rsatishi lozim edi. Bunday bo‘lmagach, mug‘ona may – oshiqona, o‘tkir may b-n u “nomusulmon”dan qo‘l yuvish, uning bahridan o‘tish kerak:

Dayr aro chun mug‘bacha el yori bo‘ldi,
ey ko‘ngul,
Yu mug‘ona may bila ul nomusulmondin ilik.

N. ba’zan xonaqohdagi amallardan, zohiriy ibodatlardan bezadi. Natijada, haqiqiy ishqni ulashadigan qadah, may, mayxona, mug‘bachalarni istab qoladi. Bu may va mayxonani ko‘ngil sofligiga, xotirjamlikka erishish vositasi deb biladi:

Toriqtim xonaqahda dayr sari
yuzlanay emdi
Ki, munda necha zulmatdur, safodur
sarbasar anda.
Qadah sofiyu piri dayr sofiy,
mug‘bacha sofiy,
Ne ko‘rgay juz safo bir kimsakim,
tutqan maqar anda.

Piri mug‘on, mug‘bacha, dayr kabi obraz va timsollar fors-tojik she’riyatidagi qator soqiynomalarda, ayniqsa, Hofiz soqiynomasida uchraydi. O‘zbek she’riyatida ular N. va Majzub Namangoniy soqiynomalarida keltirilgan. Majzub “mug‘on bazmi qadahchilari”ga xitob qilarkan, piri mug‘on obrazining o‘ziga xos, betakror ifodasini ham yaratgan. Irfoniy adabiyotda piri mug‘on, piri xammor yoki piri mayfurush o‘zini anglab yetgan kishi, murshid, ma’naviy ustoz, komil insonlardir. M.D. esa, bu olamning o‘tkinchi hoy-u havaslaridan uzilib, ko‘ngil Haq ma’rifatidan, poklik sharobidan bahramand bo‘ladigan joy ma’nosida qo‘llanadi.

Davlat libosi shahg‘aki, yo‘qtur shikoyatim,
Mug‘ dayri tegrasida gadolig‘ palosidin.

Bu istilohdan N. ham foydalangan. M-n, “Xarobot aro kirdim...” nomli tarje’bandida xuddi qarmoq baliqni tutgandek, may ishqida mug‘lar piri jazbasi ham meni o‘ziga tortdi deydi:

May olmoqqa piri mug‘on jazbasi
Meni chekti andoqki, mohiyni shast.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройибус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Абдураззоқ Кошоний. Истилоҳоти сўфия. – Теҳрон. 1384 (ҳ.ш.). Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005; Комилов Н. Тасаввуф. – Т., 2009; Саййид Жаъфар Сажжодий. Фарҳанги истилоҳот ва таъбироти ирфоний. – Теҳрон, 1370 (ҳ.-ш.).*

M.A., S.R.

MUG‘BACHA (f.) – 1. mug‘ bola, mug‘lar xizmatidagi bola. 2. Mayfurush do‘konidagi shogird va xizmatkor bola; may tashuvchi va tarqatuvchi. 3. Majoziy: soqiy, kosagul. 4. Tasavvufda: sodiq murid; ma’shuqa, sevgili.

M. – N. ijodida eng ko‘p qo‘llangan istilohlardan biri. Uning “Ey mug‘bacha” radifli maxsus g‘azali ham bor (“N.Sh.”, 554). Mug‘bacha shoir she’rlarida ma’rifat tarqatuvchi, ilohiy fayz bag‘ishlovchi ma’nolarida keng qo‘llaniladi. M-n, quyidagi baytda u soqiy ma’nosida keladi:

Menga dayr ichra berdi mug‘bacha
bir mayki, jon toptim,
Bu jannatning hamono huri uldur,
kavsaridur bu.

Dayr, dayr piri, mug‘, M., mug‘ dayri so‘zlarining bir-biriga nisbati bo‘lib, ular birgalikda yagona zanjirni, uyg‘unlikni tashkil etadi. A.Rustamovning yozishicha, M. o‘rnida soqiy yoki boshqa so‘z ishlatilsa, ular dayr so‘ziga

uyg‘unlashmaydi. “Soqiy” so‘zi mayxona, maykada kabi so‘zlarga uyg‘undir. Mohir san’atkorlar so‘zlarni ramziy mazmunda ishlatganda ham ularning asl lug‘aviy ma’nolarini nazardan chetda qoldirmaydi”. M-n:

Dayr aro to aylading ko‘nglumni zor,
ey mug‘bacha,
Kufr ila zunnor qildim ixtiyor,
ey mug‘bacha...

Dayr pirining muridimen,
sening ham oshiqing,
Yo‘qsa din ahlig‘a dayr ichra ne bor,
ey mug‘bacha.

Ad.: *Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. –Т., 2011; Бертельс Е.Э. История персидско-таджикской литературы. М., 1960; Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. – Т., 1997; Рустамов А. Шоирнинг биринчи ғазали // Шарқ юлдузи, 1987, № 2.; Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005; Ҳаққул И. Ирфон ва идрок. – Т., 1998.*

M.A., E.O.

MUHABBAT QIBLAGOHI – N. “F.Sh.” dostoni matnida Farhodga nisbatan qo‘llagan ibora. Asarda Shopur Farhodni ulug‘lab ishq ahli shohi, sham’i zamona va M.Q. deya nomlaydi:

Dedi: ey dard ila ishq ahli shohi,
Izing xayli muhabbat qiblagohi.

Ad: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 1991.*

B.R.

“MUHABBATNOMA” – N.ning “M.A.” asarida keltirilgan kuy nomi. Bu haqda u quyidagicha yozadi: “Va yana ham turk ulusida bir suruddurkim, ani “Muhabbatnoma” derlar va ul hazaji musaddasi maqsur bahridadur va holo matrukdur, budur, bayt:

Mani og‘zing uchun shaydo qilibsen,
Manga yo‘q qayg‘uni paydo qilibsen.

Mafo’iylun mafo’iylun mafo’iyl”.

Ad.: *Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

E.O.

MUHADDIS – hadislarning sanadlarini, illatlarini, roviylarning ahvolini bilgan, imkoni boricha hadis yodlagan, “Kutubi sitta” (olti mashhur hadis kitobi)ni, Ahmad ibn Hanbalning “Musnad”ini, Bayhaqiyning “Sunan”ini, Tabaroniyning “Mu’jam”ini tinglagan (saboq olgan) va bularga hadis juz’laridan ming juz’gacha qo‘sha olgan kishidir.

N. “N.M.” tazkirasida jahondagi olti nafar eng mashhur M.lardan “sahih” yo‘nalishi asoschisi Imom Buxoriy hamda “Sunan” yo‘nalishi asoschisi Hakim Termiziydan tashqari yana ko‘plab M.larni va ularning hadis ilmiga qo‘shgan xizmatlarini tilga olgan. M-n: Dorimiy Samarqandiyni shayx Muhammad b. Mansur Tusiy (q.s.) zikrida tilga olgan: “Ul Bag‘dodda ermish, so‘fiy va muhaddis Usmon Sayid Dorimiyning ... ustodi ermish”. Yoki: “Ali binni Bundor b. Husayn So‘fiy Sayrafiy (q.s.) beshinchi tabaqadindur. Kuniyati Abulhusayn. Nishopurning mutaaxxir mashoyihidindur... va hadisda siqa (ishonchli – B.R.) ermish”. “Abulabbos Sayyoriy (q.t.s.) beshinchi tabaqadindur. Oti Qosim Ibn Qosim Mahdiydur. Marv ahlidindur. Shayx Abu bakr Vositiyning shogirdidur. Olim va faqih va muhaddis ermish”. “Abu Bakr Zaqqoqi Sag‘ir (q.s.) shayx ul-islom debdurki, ul bag‘dodlikdur, Zaqqoqi kabirning shogirdidur. Ul hadisqa mashhur erdi, so‘ngra bu toifa tariqig‘a kirdi”. Shayx Abu Bakr Kattoniy (q.t.s.) zikrida ham “Yamanda Safo masjidida xalq Abdurazzoq qoshida hadis o‘qurlar erdi” kabi M.lar haqida qimmatli tarixiy ma’lumotlar bitilgan. Tazkirada shayx Abubakr b. Yazdonyor Urmaviy (q.s.) tilidan M.lar to‘g‘risidagi

“Muhaddislar–sunnat qo‘riqchilaridir” degan hikmat ham keltirilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлар, 10-жилд. – Т., 2011; Абу Исо Муҳаммад ат-Термизий. Сунани Термизий. 1-жилд. – Т., 1999; Абдулваҳоб Ҳаллоф. Усулул фиқҳ. – Т., 1997; Сирожиддинов С. Ўзбек муттоз адабиётининг фалсафий сарчашмалари. – Т., 2015.*

B.R.

MUHAYYIR (taxallusi; asl ismi Muhammadqul Muhammadrasul o‘g‘li) (1842, Qo‘qon – 1918, Rishton) – shoir. Otasi Qo‘qon xoni saroyida kotib sifatida xizmat qilgan. Boshlang‘ich savodini oilada chiqargan M. o‘qishini Qo‘qon madrasalarida davom ettiradi. 1875–1875-yy. mobaynida Buxoroda tahsil oladi. 1886-y.da Qo‘qonga qaytadi. Din, tasavvuf va ilmi bade’ni yaxshi bilgan M. doimo ijod b-n mashg‘ul bo‘lgan. O‘sha yili shaharda tarqalgan vabo tufayli xotini va 5 nafar farzandi juvonmarg bo‘ladi. Ko‘p o‘tmay uni Rishtonning Oqyer qishlog‘idagi Qalandarxona Jome’ masjidiga imom qilib jo‘natishadi. Oqyerda u uylanib, bola-chaqali bo‘ladi va umrining oxirigacha shu yerda yashab qoladi.

Markazdan chekkada yashasa-da, u Muqimiy, Zavqiy, Muhyi, Hamza kabi o‘z davrining taniqli shoirlari b-n yaqin munosabatda bo‘lgan.

G‘azal, muxammas, tarje’band, ruboiy kabi janrlarda qalam tebratgan M. devonining 2 nusxasi bizgacha yetib kelgan bo‘lib, biri O‘zR FA Sharqshunoslik instituti fondida (inv. № 7493), ikkinchisi Adabiyot muzeyida (inv. № 241) saqlanadi. U zullisonayn shoir bo‘lib, jami 11 ming misrani tashkil etgan adabiy merosining 8 ming misrasi o‘zbek, 3 ming misrasi fors-tojik tilida.

M. – mahoratli shoir, uning she’rlaridagi ravonlik o‘z muhitidagi biror shoirda yo‘q. Ijodida diniy-tasavvufiy she’rlar boshqa zamondoshlari ijodidaga qaraganda kuchli. Hamd va na’t she’rlar ko‘pchilikni tashkil etadi. N.ga ergashib har bir harf b-n tugaydigan she’rlarini hamd va na’t b-n boshlaydi. Ayniqsa, na’tlari ko‘p.

M. ijodiga N., Lutfiy, Fuzuliy, Mashrab, Amiriy, Muqimiy, Hofiz va Bedil kabi shoirlar ta’siri yorqin ko‘rinadi. Xususan, N.ga ergashganini uning o‘zi ochiq aytadi:

Ey Muhayyir, sen kimu bo‘lmoq Navoiy payravi,
Topmag‘uncha ruhidin oni navo qilma havas.

Devoniga N. kabi maxsus debocha yozgan. Debochada Lutfiy va N.ga izdoshlik qilgani, ularning g‘azallariga tatabbu’ yozganini aytadi. M-n, N.ning “Paydo”, “Aylab”, “O‘ynar”, “Erur”, “Og‘iz”, “Ishq”, “O‘ynamoq”, “Bila” kabi radifli qator g‘azallariga tatabbu’ qilgan, “Ey habib”, “Aylab”, “Erur”, “Bas”, “Bizga yo‘q”, “Bila”, “Chekti” singari radifli g‘azallariga muxammaslar bog‘lagan. M-n:

Og‘zing ermas, ey nigoro, chashmai
hayvon erur,
Gavhar o‘rnida nihon anda dur
dandon erur,
Notavon ko‘nglum nishonin topmayin
hayron erur,
Har labing o‘lganni tirguzmangda,
jono, jon erur,
Bu jihatdin bir birisi birla jonajon erur.

N. g‘azallaridagi singan safol, raz qizi, piri mug‘on, mug‘bacha, solik, murid, orif, murg‘i ziyrak, o‘zluk, jahon zoli, bori amonat, rind, semurg‘, salomat ahli, rind, fano ahli, riyozat, majoziy ishq, dayr piri, fano ahli, dashti fano, may durdi, tajalliy, quyun kabi qator istiloh-timsollar M. ijodida ham uchraydi.

Mohir xattot sifatida N. terma devonini ko‘chirgan (1870). Bu terma devon O‘zR FA Adabiyot muzeyida saqlanadi (inv. №226).

U Mas’ud ibn Yusuf Samarqandiyning (XV asr) “Saloti Mas’udiy” nomli fiqhga oid asarini forschadan o‘zbek tiliga o‘giradi va bu tarjima 1906-y.da toshbosmada chop etiladi.

M. Shayx ibn Nuriddin Muhammad Puroniy arabchadan forschaga o‘girgan 40 hadisni ham o‘zbekchalashtirgan.

U o‘z qo‘li b-n bayoz ham tuzgan, unga o‘zining she’rlari va tarjima qilgani “Qirq hadis”ni kiritgan.

O‘zbek o‘quvchilarini dastlab Anisiy M. ijodi b-n tanishtirib, muxtasar so‘zboshi b-n “Tanlangan she’rlar”ini nashr ettirgan. A.Dehqonov esa shoir hayoti va ijodi bo‘yicha dissertatsiya himoya qilib (2007), devonini to‘la nashr ettirdi (2010).

Ad.: *Муҳаййир. Танланган асарлар. – Т., 1967; Муҳаййир. Девон. – Т., 2010; Деҳқонов А. Муҳаййирнинг ҳаёти ва ижоди. Номз. дисс. – Т., 2007.*

E.O.

MUHAMMAD (s.a.v.) – Muhammad ibn Abdulloh (570/571 Makka – 632 Madina) – Allohning oxirgi va eng ulug‘ payg‘ambari, elchisi, bashariyatni islom diniga da’vat qilgan shaxs. Qur’oni Karim Jabroil (a.s.) orqali u zotga vahiy qilindi. Muhammad (s.a.v.) Quraysh qabilasining hoshimiylar urug‘iga mansub xonadonda dunyoga keldi. U zot 63 yillik hayoti davomida bir qator arab va ajam davlatlarida islom dinini joriy qildi, bu yo‘lda turli zahmat va mashaqqatlar cheksa-da, payg‘ambarlik vazifasini oxiriga yetkazdi. Muhammad (s.a.v.) har jihatdan komil, odamlarga ilohiy yo‘l-yo‘riq va qonunlarni yetkazuvchi payg‘ambar deb tanildi. U kishining ibratli hayoti va hadisi shariflari butun insoniyat tomonidan o‘qib, o‘rganilib kelinmoqda. Muhammad (s.a.v.)ning vafotidan so‘ng Qur’oni Karimdan keyingi manba bo‘lgan u kishining hadislari ham jamlandi va xalq orasida yoyildi. Hadislar ibodat, siyosat, ijtimoiy munosabatlar va odob-axloq mavzularini qamrab olishi hamda Payg‘ambarmiz (s.a.v.)ning hayoti va qilgan ishlarini yoritishi b-n ham e’tiborga molikdir.

N. ijodida hazrat Payg‘ambarimiz (s.a.v.)ning ulug‘ shaxsiyati, fazilatlari, faoliyat va nubuvvat ishlari badiiy jihatdan yuksak saviyada yoritilgan.

“Na’t” lug‘atda madh etish, sifatlash, maqtash kabi ma’nolarni bildirsa, adabiy istiloh sifatida Payg‘ambar (s.a.v.)ni madh etish, ulug‘ sifatlari ila maqtashdir. N. “X.M.” devonida ko‘plab na’t g‘azallar yozganini sharaf bilan e’tirof etadi:

Sening madoyihi na’tingda, yo Rasulalloh,
Tamom bo‘ldi Navoiy takallumi poki.

Bu to‘rt daftarida hamdu na’t aro xalali,
Gar etmish o‘lsa ayon tab’u kilki beboki.

Vale shafoating imkoni ko‘ngliga kirgach,
Umid ila sevunur yana tab’i g‘amnoki.

Yetur anga karaming bahridin payopay fayz,
Ki na’ting ichra durafshonlig‘ etsun idroki.

Yuqoridagi satrlar “X.M.”ning eng oxirgi g‘azalidan olingan. N.ning devonni na’t g‘azal b-n xotimalashi va unda ta’kid b-n to‘rttala devonida hamd-u na’tlarning ko‘pligiga ishora qilishi, uning bu yo‘nalishda ko‘plab g‘azallar bitganligidan dalolat beradi.

N.ning Muhammad (s.a.v.)ga bag‘ishlangan g‘azallarini shartli ravishda uchga bo‘lish mumkin:

1. Ta’rif va tavsifiy g‘azallar.
2. Me’rojnoma g‘azallar.
3. Tarkibida na’t ruhidagi baytlar bor bo‘lgan g‘azallar.

Mazkur turdagi g‘azallarda Muhammad (s.a.v.)ga tegishli bo‘lgan quyidagi mavzular o‘z ifodasini topgan:

1. Tug‘ilishi va dunyoga kelishi.
2. Ulug‘ shaxsiyati.
3. Hayotining ibratli tomonlari.
4. Yuksak xulq-atvori.
5. Nuri Muhammadiyning qadimiyligi.
6. Maxluqotning u tufayli yaratilgani.
7. Mo‘jizalari.
8. Islomni rivojlantirishdagi xizmatlari.
9. Laduniy ilmi va fasohatli nutqi.

10. Me’rojga chiqishi.

11.Ummatlarini shafoat qilishi va h.k.

Ulug‘ shoir asarlarida Rasuli akramning eng komil inson sifatida ulug‘ xulq sohibi ekani, payg‘ambarlik mo‘jizalari, islomni yoygani, jo‘mard va shijoati, shafqat va muruvvati, ummatini sevgani, shafoat qilishi, me’roj voqealari va h.k. mavzular oyat va hadislar vositasida yoritib beriladi. Uning hayotidan ibrat olishga, uni sevishga va unga ergashishga da’vat qilinadi. She’rlarda “Nuri Muhammadiy”, “Lavlok”, “Qoba qavsayn”, “Rahmatan lil – olamiyn” kabi faqat Muhammad (s.a.v.)gagina xos bo‘lgan bir qator sifatlarni adabiy-badiiy nuqtayi nazardan tahlil qilib beradi.

Na’t g‘azallarni til va istilohlariga ko‘ra, shartli ravishda ikkiga bo‘lish mumkin. Birinchi guruhdagi g‘azallarda bevosita hazrat payg‘ambarimiz (s.a.v.) b-n aloqador: “kuntu nabiyyan...”, “ana afsah...”, “shaqqul qamar”, “vash-shams”, “vaz-zuho”, “mozog‘-al-basar”, “qoba qavsayn”, “li ma’alloh”, “Sidratul-muntaho”, “Buroq” kabi oyat, hadis va me’roj voqeasiga dalolat qiladigan so‘zlar ishtirokidagi g‘azallar. Ikkinchi guruh g‘azallar tarkibidagi vasflardan, imo-ishoralar va komil insonga xos sifatlardan ularning Payg‘ambar (s.a.v.)ga bag‘ishlanganini ma’lum bo‘ladi. Mavzusi boshqa g‘azallar turkumi ham borki, ularda ko‘tarilgan bosh mavzu atrofida bahs yuritilar ekan, fikrni kuchaytirish va dalillash u-n Payg‘ambar (s.a.v.) ning biror sifati yoki fazilati misol tariqasida keltiriladi.

N. “B.B.”ga yozilgan debochasida o‘tmishdagi barcha payg‘ambarlar osmondagi yulduzlar (anjum) kabi bo‘lsalar, Muhammad (s.a.v.) ularga nisbatan oydek, oy emas, olamni yoritguvchi quyoshdek deb ta’riflaydi. Shuningdek, Payg‘ambarimiz (s.a.v.)ning nafaqat boshqa nabiylardan ustunligi, balki, butun koinotning u kishi tufayli yaratilganiga ishora qiladi.

Anbiyo sarxayli sultoni rusul,
Kim erur oning tufayli juzvu kul.

Bu baytda butun borliqning payg‘ambar (s.a.v.) sharofatidan yaratilgani e’tirof etilmoqda. Aniqrog‘i, “Lavloka lamo xalaqtul aflok” – “Agar sen (Ey Muhammad alayhissalom), bo‘lmasayding falaklarni yaratmasdim”, degan hadisi qudsiyga ishora qilingan. Mazkur hadis ko‘plab shoirlarning na’t g‘azallaridan joy olgan. N. ham bu hadisni qisqartirib yoki mazmunini berib, unga ko‘p murojaat etadi. “B.B.” debochasida yozadiki:

Vujudining tufayli to‘qquz aflok,
Bu da’vo shohidi manshuri “lavlok”.

N. she’riyatida hazrat Payg‘ambar (s.a.v.)ga nafaqat insonlar, balki tabiatdagi jonsiz narsalar ham ehtirom saqlashlarini timsollar, tashbeh, jonlantirish, tajohuli orif va talmeh kabi san’atlar vositasida ko‘rsatib, tasvirlab beradi. “G‘.S.” devonidagi dastlabki na’t g‘azalda keltirilishicha, hazrat Payg‘ambar (s.a.v.) Odam farzandlari orasida payg‘ambarlar guruhi (nubuvvat xayli)ning oxirgisi, ular uzuk bo‘lsa, u uzukka o‘yib yozilgan yozuvdir. Ko‘kdagi quyosh yuzini Payg‘ambar (s.a.v.) eshigi tuprog‘iga surtish orzusida har kun charx qasridan bu olamga tushib keladi. Go‘yo quyoshning butun dunyoga nur sochishidan maqsadi – Payg‘ambar (s.a.v.) eshigining muqaddas tuprog‘ini tavof qilishdan iborat. Keyingi baytda shoir me’roj kechasi Payg‘ambar (s.a.v.) yuzining yulduzlar orasida porlashini shabnam orasida har tarafga nur sochayotgan durri shabcharog‘ (tunda chirog‘day yorituvchi dur)ga o‘xshatadi. Navbatdagi baytda N. jonlantirish va tajohuli orifning go‘zal namunalarini yaratadi. Shoirning tasvirlashicha, Ka’ba Payg‘ambar (s.a.v.)dan ayrilgani u-n firoqida motam tutib, qora kiyib, yoqasini har tarafga chok-chok qilib tashlagan (Aslida Ka’ba qora rangdagi binodir. Sirtida chok-chok joylari ham yo‘q emas).

Ne uchun kiymish qaro haryon solib
jaybig‘a chok,
Furqatingdin Ka’ba gar qolmaydurur
motam aro?

Makkada tush payti quyosh aksining Zamzam suviga tushishi tabiiy bir holat. Lekin shoir tasvirlashicha, har kun tush payti Zamzam suvida jilvalangan quyoshning aksi emas, balki, sof ko‘nglida asrab kelayotgan Payg‘ambar (s.a.v.) yuzining mehridir.

Jonsiz narsalarning insonlardek Payg‘ambar (s.a.v.) diydorini qo‘msashi va uni sog‘inib yashashi, she’rning ta’sir kuchini yanada oshirgan va aytish mumkinki, ba’zi baytlar Muhammad (s.a.v.) mo‘jizalari ta’sirida yozilgan bo‘lishi ham mumkin. Chunki mo‘jizaga oid kitoblarda tog‘-u tosh, cho‘l-u biyobon, parranda-yu darrandalar ham tilga kiradi. M-n, Payg‘ambar (s.a.v.) suyanib xutba o‘qigan kursi uning vafotidan keyin sog‘inib, yum-yum yig‘lagani kitoblarda qayd etilgan.

G‘azalning keyingi baytlariga diqqat qilsak, Payg‘ambar ravzasi sharaflanadi. Shoir tashxis san’ati orqali muborak qabrga tushadigan oy nurini tasvirlaydi. Go‘yo oy bir farishta qo‘lida mash’al bo‘lib moviy osmondan Payg‘ambar (s.a.v.) qabri boshiga nur sochib turadi.

Hazrat Payg‘ambar (s.a.v.)ning diniy, ijtimoiy-siyosiy faoliyati Batho (Makka) va Yasrib (Madina) shaharlarida o‘tkan. U yerlarda haj arkonlari bajariladi. Shuning u-n ham Makkayi mukarrama va Madinayi munavvara deyiladi. Shoir tashxis va mubolag‘a san’ati orqali Makka sahrosidagi qumlar haqida aytadiki: ular oddiy qumlar emas, jamoling mehrini sog‘inib g‘amdan jismi zarra-zarra bo‘lib yerga to‘kilib ketgan qumlardir.

Qum emas Bathodakim, mehri jamoling hajridin
Zarra-zarra jismi bir-birdin to‘kuldi g‘am aro.

Keyingi baytlarda Madina yo‘llari b-n bog‘liq lirik tasvir, jonli ifoda ko‘zga tashlanadi. Lirik qahramonning e’tiroficha, Payg‘ambar (s.a.v.) oyoqlari bir paytlar Madina vodiylariga yetib, ularni xursand qilgandi. Endi u yurgan yo‘llar, Payg‘ambar (s.a.v.)ni sog‘inib, uning hajrida yuzini tirnoqlari b-n tilim-tilim qilib tirnab tashlagan. Tirnalgan yuzda yo‘lga o‘xshash qontalash chiziqchalar paydo bo‘lgan. N. shu manzarani topqirlik b-n yo‘lga qiyos etgan.

Yo‘l emas, Yasribda yirtibdur yuzin tirnog‘ ila
Maqdaming to yetmadi ul vodiyi xurram aro.

G‘azal maqta’sida N. o‘zining samimiyati va payg‘ambarga cheksiz sadoqatini bayon qilib, Alloh payg‘ambar (s.a.v.)iga mahram bo‘lgan xos oshiqlari qatoridan joy olishni xohlaydi:

Itlaring maxsusu mahzundur Navoiy, koshki
Kirsa bu mahrum ham ul zumrai mahram aro.

Hazrat Payg‘ambar (s.a.v.) hayotining turli qirralari, ijtimoy harakatlari, nubuvvat vazifasi, me’roj voqealari va xos sifatlari “X.” dostonlarida yanada yorqinroq o‘z ifodasini topgan. “H.A.”-ning o‘zida beshta na’t, qolgan dostonlarda kamida ikkitadan na’tning o‘rin olishi N.ning bu mavzuga chuqur kirib borganidan darak beradi.

N. “H.A.”ning dastlabki na’tida “Alloh taolo, avvalo, mening nurimni yaratdi”, hadisiga binoan “Nuri Muhammadiy” dan bahs yuritadi. Bu nurning qadimiyligi va uning, avvalo, Odam Atoda zohir bo‘lganini ta’kidlaydi:

Bu nur Odam Atodan Momo Havvoga va undan Shis (a.s.)ga, keyingi payg‘ambarlar orqali Rasululloh (s.a.v.)ning ota-onasiga va nihoyat ulardan tug‘ilajak farzandga o‘tishidan so‘z yuritadi. N. ushbu na’tida Muhammad (s.a.v.) nurining qadimiyligini dalil qilib, Odam Ato butun insoniyatning otasi bo‘lgan bo‘lsa ham Muhammad (s.a.v.)ga o‘g‘il degan da’voni ilgari suradi:

Bo‘ldi sanga Odam sabqatnamo,
Avval o‘g‘ul, so‘ngra gar o‘lsa ato.

Naslida har kim anga payvand o‘lub,
Borchasi farzandinga farzand o‘lub.

Kimki munga da’viyi hujjat,
“Kuntu nabiyyan” anga hujjat etar.

Shoir yuqoridagi fikrlariga hujjat talab qilganlarga “Kuntu nabiyyan va Odam-u baynal-moyi vattin” ya’ni “Odam hali suv bilan loy orasida ekanida men nabiy bo‘lib bo‘lgan edim” mazmunidagi hadisni dalil qilib keltiradi. Shoirning “Munj.” asarida ham yuqoridagi da’vo ilgari suriladi: “Ulki, “Kuntu nabiyyan va Odam-u baynal-moyi vattin” mazmuni ila anbiyoga muqaddamdur, “Rahmatan lil-olamin” va “Xotamun nabiyyin” (oyatlari) mantuqi bila alarga muaxhar va xotamdur, habibi Hazrati Iloh Muhammad Rasulullo (s.a.v.)dur. Yuz yigirma to‘rt ming anbiyoyi mursal xilqatidin murod ul va barcha anga xayl va o‘n sekiz ming olam ixtiro’idin maqsud ul va ofarinish anga tufayl”. N. “B.B.”da ham bu haqda to‘xtalgan:

Turfa bukim, Bulbashar keldi atolarg‘a ato,
Lek Bulqosim dedi farzand ani bevahmu biym.

Dostonning ikkinchi na’tida Rasululohning dunyoga kelishi va tug‘ilajak farzandning xosiyatlaridan xabar beradi. Alloh Rasuli dunyoga kelgan bir payti Makkada jaholat, butparastlik avjiga chiqqandi. Payg‘ambar tug‘ilgan kechadayoq bu dinsizlik va butparastlikka go‘yo zarba berildi.

N. keyingi baytlarda payg‘ambarimizning otadan erta yetim qolgani, tijorat ishlarida “amin” ya’ni omonatdor laqabini olgani, xalq uni tushunmasdan unga aziyatlar bersa ham “Xayr duosi bilan elga pand” berganini eslab payg‘ambar xulqiga tasannolar aytadi:

“Azzama qadrah” – bu ne xulqi azim,
“Karrama vajhah” – bu ne nafsi karim.

“Hodiyuno kavkabu iqbolihi,
Sallu alayhi va alo olihi”.

Maz.: bu qanday ulug‘ xulqki, Alloh qadrini baland qildi! Bu qanday karamli nafs (shaxs)ki, Alloh yuzini mukarram qildi! Uning iqbol yulduzi bizni to‘g‘ri yo‘lga boshladi. Unga va oila a’zolariga salavotlar ayting!

Shoir bejizga salavot aytishni targ‘ib qilmagan. Chunki, islom ta’limotiga ko‘ra, Muhammad (s.a.v.) nomini aytgan yoki eshitgan kishi hurmat yuzasidan “sallalohu alayhi vasallam” (s.a.v.) – “unga Allohning rahmat va salomi bo‘lsin” yoki “alayhissalom” – “unga salomlar bo‘lsin” deb salovot aytib qo‘yishi vojib hisoblanadi.

Uchinchi na’tda N. Payg‘ambarning xos sifatlari va din yo‘lidagi ishlarini badiiy lavhalar, jonli o‘xshatishlar orqali ta’riflab beradi. Tarixiy va siyar kitoblarida Muhammad (s.a.v.) soyasining yerga tushmaganligi yozilgan. Maqsudxo‘ja Mansurxo‘ja o‘g‘lining aqidaga doir “Maxzan ul-maqsud” (Maqsadlar xazinasi) kitobida Payg‘ambarimiz (s.a.v.)ning boshqa payg‘ambarlardan ajralib turadigan o‘n to‘qqizta sifatidan biri: “Muborak soyalari yerga tushmas edi” deb ma’lumot beradi. N. Rasulullohda garchi jasadining soyasi bo‘lmasa ham, qadrining soyasida hamma narsa borligi, Alloh unga yuzlab soyalardan ziyoda nur bergani, hatto payg‘ambarlar ham Muhammad (s.a.v.) quyoshidan ziyo olib, soya kabi unga ergashganlari haqida ta’sirli baytlar bitadi.

Qadimda qamish qalamni yo‘nib, boshini tilib, siyohiga botirib yozganlar. N. Payg‘ambar (s.a.v.)haqida: “Garchi xoma boshini yormagan (biror narsa yozmagan) bo‘lsang ham barmog‘ing mo‘jiza ko‘rsatib oyni ikkiga bo‘lib yubordi” deydi:

Bo‘lmadi gar xoma boshin yormog‘ing,
Yordi qamar xomasini bormog‘ing.

“Muhammad (s.a.v.)ning mo‘jizalari” kitobida keltirilishicha, mushriklar oyni ikkiga bo‘lishni talab qilganda Payg‘ambar (s.a.v.) ko‘rsatkich barmog‘i b-n ishorat qilib oyni ikkiga bo‘ladi va ulkan mo‘jiza ro‘y beradi. Kitobda yozilishicha, oyning bir bo‘lagi osmonda qoladi va bir bo‘lagi tog‘ning orqasiga yo‘qoladi. Boshqa bir rivoyatda oyning bir bo‘lagi Qazyon tog‘iga va bir bo‘lagi Abu Qubays tog‘ida ko‘rinadi. Bu ahvolga guvoh bo‘lgan mushriklar

Muhammad (s.a.v.) bizni sehr qildi, deydilar. Abujahl degan mushrik “hozo sehrun mustamirrun” (Bu har doimgi sehr-ku!) deb qichqirib yuboradi. Shunda bu voqedan xabar beruvchi “Qamar” surasining 1-2-oyatlari nozil bo‘ladi. Diniy manbalarda “shaqqul-qamar” deb tilga olinadigan mazkur mo‘jizani shoir to‘rtinchi na’tida ham eslab o‘tadi:

Dema ilik, tig‘eki bir bormog‘i,
Oyni iki bo‘ldi ishorat chog‘i.

Tong emas ar ul kafi mu’jiznamoy,
Qilg‘ach ishorat iki ayrilsa oy.

Noqasi yer uzra chu raftor etib,
Har izi “Shaqqal-qamar” izhor etib.

Odatda siyohga botirilganda xoma (qamish qalam)ning boshi qorayadi. N. bu holatga muvofiq poetik mushohada yuritib, kimki buyruqlaringdan bosh tovlasa, senga ergashmasa, yuzi qalamning boshi kabi qorayadi. Sen garchi qo‘linggga qalam olmagan bo‘lsang ham Ajam-u Arab hukmingga bosh egdilar, deb yozadi.

Keyingi baytlarda Payg‘ambar (s.a.v.)ning sharofati va shariati tufayli insonlarning saodatga erishganlari, Haqning azaliy-u abadiy rahmatiga sazovor bo‘lganlari, hazrat Payg‘ambar (s.a.v.) osiy ummatlarining umid manbayi va shafoatchisi o‘laroq adashgan kishilarga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatganlari aytiladi:

Haq azaliy rahmati jovidi sen,
Noma qaro qilg‘on el ummidi sen.

Kimki amal nomasin aylab qaro,
Sen kirib oning qaro joni aro.

Kimniki gumrah qilibon toli,
Jodai shar’ing o‘lub shori.

Johiliyat davrida arablar turli but va sanamlarga topinganlar. Muhammad (s.a.v.) islomni joriy qilish b-n ularga barham berdi. Shoir ta’riflashicha, Lot va Manot kabi butlar dinga zarar keltirardi. Payg‘ambar (s.a.v.) ularning hammasini ushatib ildizi b-n yo‘q qildi. Kofirlarning Manot degan butining bo‘yni sinib, ular “mot” bo‘ldi. Kufr boshi kesilib, boshdagi savlat ham jismidagi bosh ham qolmadi:

Lotki andin edi dinga balo,
Sen ushotib poyasini bo‘ldi lo.

Kufr eliga ulki bor erdi Manot,
Bo‘ynini sen sindurubon bo‘ldi mot.

Kufr boshin kesting etib qahr fosh,
Boshig‘a far qolmadi, jismig‘a bosh.

N. na’t oxirida Payg‘ambar (s.a.v.)ga xitob qilib, Sharq adabiyotiga xos bo‘lgan, o‘zining ojizlik, siniqlik va umidvorlik tuyg‘ularini ifoda etadi:

Xasta Navoiy sori nazzora qil,
Kufr anoniyatig‘a chora qil.

Et bu inoyat bila hosil ani,
Zumrayi islom aro doxil ani.

O‘z-o‘zidan ma’lumki, N. haqiqiy mo‘min-musulmon va taqvodor inson sifatida butun hayotini ilm-u ma’rifat va din-u diyonat ishlarini rivojlantirishga bag‘ishlagan. Shunday bo‘lsa ham u kamtarlik yuzasidan o‘zini xasta, ojiz deb biladi. Payg‘ambar (s.a.v.) ruhiga tavajjuh qilib, kufr manmanligiga chora qilishni, bunday inoyati bilan uni islom toifasiga qo‘shishni “istimdod” tarzida iltijo qilib so‘raydi. Tasavvufda bir ulug‘ zotning ruhidan madad so‘rash “istimdod” deb ataladi. Payg‘ambarlar yoki avliyolar ruhoniyatidan tarbiya topgan kishi esa “uvaysiy” deyiladi.

Shoirning Payg‘ambar (s.a.v.)ga bo‘lgan hurmat-ehtiromi, uni saodat manbayi deb bilishi va undan ma’naviy ko‘mak istashi, deyarli, barcha asarlarida namoyon bo‘ladi. “B.V.”dagi yettinchi g‘azal oxirida ham o‘zining ojiz va gu-

nohkorligini e'tirof etib, Alloh Payg'ambaridan ahvoliga nazar solishini va fayzga erishgan ruhiyati b-n Payg'ambar (s.a.v.)ning ta'rif-u tavsifiga mashg'ul bo'lishini so'raydi:

Yo nabiyalloh, ahvolima qil nazar,
Jurm-u isyon-u ojizlig'im mo taro.

To aning birla bo'lg'ay, Navoiy, sening
Na't-u hamding bayonig'a dostonsaro.

Abu Abdullo bin Sulaymon Jazuliyning salavotlar majmuasi bo'lgan "Daloyili xayrot" kitobida Payg'ambarimiz (s.a.v.)ning to'qson to'qqizta ism (sifatlari) bayon qilingan. N. shu sifatlardan to'rttasini "rasul" (payg'ambar, elchi), "amin" (saqlovchi, omonatdor, posbon, to'g'ri, ishonchli), "mustafo" (tanlangan, saylab olingan), "mujtabo" (saralangan; saylab, tanlab olingan, mumtoz) keltirib, u zotni o'z dardiga "chorasoz" deb biladi:

Ey Navoiy, chorai dardingni qilg'ay,
ulki bor,
Ham rasulu, ham amin, ham mustafo,
ham mujtabo.

Shoir dard deganda dunyo tashvishlari emas, nafs qutqularidan xalos bo'lish, ma'naviy maqomlarga yuksalish, oxiratda Payg'ambar (s.a.v.) shafoatiga erishish kabi tushunchalarni nazarda tutadi.

To'rtinchi na'tda Payg'ambar (s.a.v.)ning ravon nutqi, besh vaqt namoz, mo'jizasi, sahobalari, xususan, choriyorlar madhi yoritiladi. Hazrat Payg'abar (s.a.v.) o'qish va yozishni bilmasa ham uning nutqi ravon va o'ta fasohatli bo'lgani, minglab hadislaridagi ma'nolar, hikmatlar bugungi kunda ham butun insoniyatni lol qoldirib kelgani yoritilmoqda. N. shunga ishorat qilib yozadi:

Gohi takallum sanga mu'jiz kalom,
Nazmi kaloming bori mu'jiz nizom.

Nukta fasohatda munaqqah sanga,
Shohidi da'vo: "Ana afsah" sanga.

Mazkur satrlardagi "Ana afsah"degan ibora hadisdan olingan bo'lib, hadisning to'liq matni shunday: Ana afsahu man nataqa biz-zodi (Men "zod" ض harfi b-n gapiradigan (arablar)larning fasihrog'i (eng so'zamoli)man. Ma'lumki, "zod" harfi bilan arablar gapiradilar va arab tilshunoslarining ta'kidlashicha, bu harfni to'g'ri talaffuz qilish qiyinroq ekan. Shoir "G'.S."dagi bir na'tida ham bu hadisga ishora qilib o'tgan:

Zihi tiling "ana afsah" takallumida fasih,
Sen amlah o'ldung, gar dilrabolar o'ldi malih.

N. Payg'ambar (s.a.v.) hadisining sahihligi va kalomining fasihligini ta'kidlar ekan, keyingi baytlarda u Payg'ambar (s.a.v.) zotini (vujudini) "bahri javohirnishon" gavharlar baxsh etuvchi dengizga qiyoslaydi. So'zlayotganda qo'l kaftidan gavharlar sochishini, kaft nima, besh panjasi (panj shox) dengiz bo'lib, yetti qat osmon u qo'llarda yetti pufakcha (hubob)ga aylanib qolishini aytib, fikrini yana shunday davom ettiradi: Islomning besh shartlaridan biri bo'lgan besh vaqt namoz (saloti xamsa) "islom panjasi"ga quvvat bo'ldi, aksincha, kufrning qo'l va panjalari bu besh "panja"dan aziyat ko'rdi. U panjalar faqirlikdan ranj tortgan bo'lsa ham aslida ularni besh xazina deb bil. Islom panjasini mahkam solib, kufrning yetti qo'rg'onidan xums (islom diniga kirmaganlardan olinadigan beshdan bir soliq) oldi.

Xamsa salotingg'a chu navbat bo'lub,
Panjai islomg'a quvvat bo'lub.

Kufr qo'l-u panjasini ranja bil.
Bois aning ranjig'a bu panja bil.

Faqr aro ul panja qabul etti ranj,
Lek haqiqatda erur panj ganj.

Panjai islom chu mahkam solib,
Kufr eti qo'rg'onidin xums olib.

N. keyingi baytlarda Payg'ambar choriyorlari va ularning fazilatlari haqida gapiradi. Beshinchi

na’ti esa me’roj voqeasiga bag‘ishlangan. (Qarang: Me’roj).

N.ning Muhammad (s.a.v.)ga atalgan har bir she’ri o‘zining samimiyati va she’riy mahoratining yuksakligi b-n kitobxonlarga alohida zavq bag‘ishlaydi.

Ad: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Ислом. Энциклопедия. – Т., 2004; Носириддин Бурҳониддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. 2 жилдлик, 2-жилд. – Т., 1991; Муҳаммад алайҳиссаломнинг муъжизалари. – Т., 1993.*

S.R.

MUHAMMAD ALI JALOYIR (t.y. va v.y. noma’lum) − sipohiy, shoir. Hasan Ali Jaloyirning ikkinchi o‘g‘li. Nisoriy taxallusi b-n she’rlar yozgan. N., “M.N.”da ma’lumot berilishicha, otasi va akasi darajasida layoqatli bo‘lmagan: “Ammo o‘zi ne sipohiyliqda otasig‘a o‘xshar va ne o‘zgaga, − deb yozadi ulug‘ shoir. − Atvorda otasig‘a nisbati bor. G‘arib tavrlik kishidur. Chun Xuroson ahlining aksari bilurlar, bitimak befoydadur. Ammo she’r aytur. Bu matla’si yaxshi voqe’ bo‘lubturkim:

Kase hargiz maro beg‘am nadidast,
Chu man g‘amdidaye g‘am ham nadidast.

Tarj.: Meni birov hech qachon beg‘am ko‘rmagan, men kabi g‘am ko‘rganni g‘amning o‘zi ham ko‘rmagan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

E.O.

MUHAMMAD ALI – N.ning tog‘asi, shoir, o‘zbek va fors tillarida “G‘aribiy” taxallusi b-n ijod qilgan. Uning hayoti haqida ma’lumotlar ko‘p emas. Tadqiqotchilar N.ning oilasi, ota va onasining she’riyatga qiziqishi hamda madaniyatga munosabati haqida yozganda, ular shoir, musiqachi, xattot tog‘asi Muhammad Alini tilga olishadi. N. shoir tog‘asi Muhammad Ali to‘g‘risida “M.N.” tazkirasining “Muhammad Ali” nomli fiqrasida batafsil ma’lumot bitgan. N. fiqrada uning qiyofasini tasvirlab berarkan, nafaqat uni shoir, balki musiqa, xattotlikni puxta egallagan mutaxassis sifatida ham tasvirlaydi. Chunonchi: “Muhammad Ali – “G‘aribiy” taxallus qilur erdi. Ul ham faqirg‘a tag‘oyi bo‘lur erdi. Mir Said Kobuliyning inisidur. Xush muhovara, xushxulq va xushtab’ va dardmand yigit erdi. Ko‘proq sozlarni yaxshi chalar erdi. Uni va usuli xub erdi. Musiqiy ilmidin ham xabardor erdi. Xututni xub bitir erdi. Agarchi bu faqirning qavm va xayli Sulton sohibqironing boyri qullari va mavrusiy bandalaridurlar, ammo bu mazkur bo‘lg‘on salohiyatlar jihatidin ul hazratning iltifoti inoyati aning bila o‘zgalardin”.

Ushbu fiqraning diqqatga sazovor joylaridan biri shuki, unda yana bir tog‘asi Mir Sayid Kobuliy nomining tilga olinishidir.

N. M.A.ning quyidagi turkcha:

Dardi holimdin agar g‘ofil,
agar ogoh esang,
Hech g‘amim yo‘q san manga
gar dilbaru dilxoq esang.

va forscha:

Chashmi bemori tu har dam
notavonam mekunad
La’li chon bashi tu, chono, qasdi
chonam mekunad.

matla’larini keltiradi. (Ya’ni, Sening xasta ko‘zing meni har dam notavon qiladi, Ey jonon, sening jon bag‘ishlovchi la’l labing jonimga qasd qiladi).

Husayn Boyqaro xizmatidan iste’fo qilib, Samarqandda qolganda tog‘asi Mir Said Kobuliyning qotili Abu Said uni ham shahid qilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Иззат Султон. Навоийнинг қалб дафтари. – Т., 2010; Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий манбаларининг қиёсий-типологик. текстологик таҳлили. – Т., 2011.*

S.G‘.

MUHAMMAD Ali (Muhammadali Ahmedov) – (1942, Andijon) O‘zbekiston xalq yozuvchisi (1992), O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi (2021), f.f.n. (1992).

Temuriylarga bag‘ishlab “Boqiy dunyo”, “Sarbadorlar” romanlari va “Ulug‘ saltanat” nomli epopeyasini yozgan. Temuriylar Uyg‘onish davrining buyuk siymosi N. haqida “Alisher Navoiy” romanini (2012–2022) bitgan. Asar 29 bobdan iborat. Roman voqealari N.ning olti oy muddatda poytaxtda bo‘lmagan davridagi Hirot tasvirlari b-n boshlanadi. Bu Chashmayi gildan ariq qazdirib, Mashhad ahlini ichimlik suvi ila ta’minlashi b-n bog‘liq bunyodkorlik ishlarni yakunlangan paytlariga to‘g‘ri keladi. Asar qahramoni Navoiy poytaxtga qaytganida, shu kabi o‘zgarishlarga guvoh bo‘ladi, demakki asar ibtidosidagi voqealar qahramonning ichki hayajonlari bog‘liq holda tasvirlangan. N.ning “Koshki” radifli g‘azalining qo‘shiq shaklida xalq orasida mashhurligi haqida roman boshida, ham xotimasida yodga olingan.

Asarda N.ning hayoti, faoliyati, ijodi, asarlari va zamondoshlari b-n qilgan muloqotlari xususida tasvirlar, voqealar bayoni kengroq ifodalangan. Asosiy voqealar Hirot, Mashhad, Astrobodda ro‘y beradi. N. va Sulton Husayn Boyqaro, N. va Abdurahmon Jomiy, N. va Shayxim Suhayliy, N. va Badiuzzamon Mirzo, N. va Sayyid Hasan Ardasher, N. va Shayx Bahlul, N. va Kamoliddin Bekzod, N. va Sultonali Mashhadiy tarzidagi muloqotlarda N.ning buyuk siymosi ochib berilgan. Adib tarixiy haqiqat va badiiy to‘qimani me’yorida tasvirlashga harakat qilgan. N. onasining sharafli nomi tarixiy manbalarda yozilmagani uchunmi, adib romanda daho shoirning onasini Qutlug‘ Beka deb tilga olgan.

Adib badiiy talqinlarni haqqoniy yoritishda N.ning va Jomiy she’rlaridan ham unumli foydalangan. Muallif roman syujetini yaratishda N. asarlari, Sulton Husayn Boyqaro “Risola”si, Mirxond, Xondamir, Davlatshoh Samarqandiy, Zayniddin Vosifiy kitoblari, Boburning “Boburnoma” memuariga murojaat qilgan.

Ad.: *Muhammad Ali. Alisher Navoiy. – T., 2023.*

B.R.

MUHAMMADJON Hakimov – (1935–2001, Toshkent) – n.shunos va matnshunos olim, f.f. d-ri, prof.

M.H. N. asarlarining qo‘lyozma nusxalari yuzasidan tadqiqotlarni amalga oshirgan. U 1989-y.da “Alisher Navoiy ijodida folklor an’analari” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Olim N. asarlari qo‘lyozmalari ustida uzoq yillar olib borilgan kuzatishlarning samarasi o‘laroq “Navoiy asarlari qo‘lyozmalarining tavsifi” (1986), “Alisher Navoiy “Xamsa”sining qo‘lyozmalari tavsifi” (1986), “Alisher Navoiy asarlarini ko‘chirgan xattotlar” (1991), “Sharq manbashunosligi lug‘ati” (2013) kitoblarini yozgan va nashr qilgan.

M.H.ning “Navoiy asarlari qo‘lyozmalarining tavsifi” nomli kitobi O‘zR FA H.Sulaymonov nomidagi Qo‘lyozmalar instituti fondidagi N. qalamiga mansub 24 asarning 254 qo‘lyozma nusxasi tavsifini o‘z ichiga oladi. Tavsif manbashunoslik va kitobshunoslik xarakterida tuzilgan. Kitob ayrim qadimiy va noyob nusxalarga monografik tavsif berilgani b-n ham nihoyatda qimmatlidir.

M.H. N. haqida yozgan “Dor ush-shifo”, “Muammo”, “Munshaot”, “Munojot”, “Radif”,

“Oliy Majlis”, “Ruboiy”, “Surud”, “Saj’”, “Tuyuq”, “Tarje’band”, “Turkiy”, “Chinga”, “Chor devon”, “Shoyi’ avzon”, “Shohbayt”, “Qaysar”, “Qasida”, “Qit’a”, “Qurultoy”, “G‘azal”, “G‘azaliyot”, “Hadis”, “Harf”, “Hamd”, “Hikoyat”, “Hirotiy”, “Xatti Hirotiy” kabi maqolalarini “Sharq manbashunosligi lug‘ati” kitobiga ham kiritgan. M-n, “Harf” maqolasiga diqqat qilsak, unda “Mazkur to‘rt harf – *pe, chim, je, gof* XV asr 2-yarmigacha eski turkiy matnlarida, goh yozilib, goh yozilmay beqaror bo‘lib keldi. N. *pe, chim, je, gof* harflarining o‘zbek yozuvi va alifbosidagi o‘rnini qonuniy ravishda mustahkamladi. N. “X.M.”da pe, chim, je, gof harflari bilan tugaydigan g‘azallar yozib, alifbo tartibiga kiritdi. Mazkur to‘rt harf N.dan keyin o‘zbek yozuvida muntazam ishlatilib kelinadi”, degan yangi gaplar aytilgan. “Radif” maqolasida esa M.H. N.ning “X.M.” devonlaridan bir so‘zli radif, ikki so‘zli radif, uch so‘zli radif, to‘rt so‘zli radif, olti so‘zli radiflarga misollar bergan va N. radif vositasida o‘zbek tilining rango-rang sifatlarini ko‘rsatganini alohida ta’kidlab ko‘rsatgan.

M.H.ning n.shunoslikka qo‘shgan hissasi va o‘ziga xosligi shundaki, u ko‘proq ulug‘ shoirning durdona asarlarining mamlakatimiz va xorij kutubxona, muzeylarida saqlanayotgan qo‘lyozma nuxalari yuzasidan tadqiqotlar olib borgan.

Ad.: *Ҳакимов М. Навоий асарлари қўлёзмаларининг тавсифи. – Т., 1983; Ҳакимов М. Шарқ манбашунослиги луғати. – Т., 2013; Абдуллаева Г. Муҳаммаджон Ҳакимов архивининг каталоги. – Т., 2023.*

B.R.

MUHAMMADSHARIF IBN MUHAMMADRAHIMBOY – XIX asr Buxoro xattotlik maktabi vakili. Nasta’liq xatda yozgan. “L.T.” va “X.”ni ko‘chirgan. Toshkent, Abu Rayhon Beruniy nomidagi ShQM qo‘lyozmalar fondi: inv. № 5984. 368-varaq. Buxoroda 1282/1865-y.da chiroyli nasta’liq xatida ko‘chirilgan.

Ad: *Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. – Т., 1991. Собрание восточных рукописей академии наук Узбекистан. VII. – Т., 1964.*

Muh.A.

MUHAMMAD AL-MUSAVIY – Eron Ozarbayjonidagi nomdor kotiblardan. Suls va nasta’liq xatda yozgan. “V.”, “A.” va “X.M.”ni birgalikda ko‘chirgan: Sankt-Peterburg Davlat xalq kutubxonasi Sharq bo‘limi. Xanikov 56. 379 varaq. 1230/1815-y.da kitobat bo‘lgan.

Ad.: *Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. – Т., 1991; Собрание восточных рукописей академии наук Узбекистан. VII. – Т., 1964.*

Muh.A.

MUHAMMAD VALIBEK (XV asrning ikkinchi yarmi XVI asr boshi) – Sulton Husayn Boyqaroning amirlaridan. Nukuz urug‘iga mansub. Uning bobosi Hoji Sayfiddinbek Amir Temurning lashkarboshilaridan edi. Otasi Valibek Husayn Boyqaroning taxt u-n olib borgan urushlarida ishtirok etgan. Muhammad Valibek XV asrning ikkinchi yarmi – VI asr boshidagi siyosiy hayotida faol qatnashgan. Husayn Boyqaro hukmronligining oxirgi yilllarida ulug‘ bek hisoblangan va davlat ishlarida, harbiy tadbirlarda muhim rol o‘ynagan.

N. b-n bir davrda xizmat qilgan ushbu amirning shaxsiyati birmuncha murakkab bo‘lgan. Uning shoir b-n munosabatlari ham chigal edi. Manbalarning birida, M.V.ning Hirotga dorug‘a qilib qo‘yilgan asrandi o‘g‘lining kirdikorlarini N. fosh qilgani va uning jazoga tortilgani haqida ma’lumotlar bor. Bunga qaramay, ularning bir qator masalalarda hamjihat bo‘lganligini ham ko‘rish mumkin, zero M.V. ham N. singari Husayn Boyqaroga behad sodiq odam edi va sulton manfaatlarini qattiq himoya qilar edi. Shu tufayli N. hayotining so‘nggi yillarida ular o‘rtasida birmuncha iliq munosabatlar yuzaga kelgan.

Jumladan, ikkisi mamlakat birligi va butunligini saqlash, isyonchi beklar va shahzodalarga qarshi kurash, markaziy hokimiyatni mustahkamlash borasida hamkor bo‘lganlar. 1498-y.da Husayn Boyqaro Astrobodga qo‘shin tortgan vaqtda uning to‘ng‘ich o‘g‘li Badiuzzamon Hirotga hujum qilgan. Shunday keskin bir vaziyatda N. va M.V. bir yoqadan bosh chiqarib, shahar mudofaasini tashkil etganlar. Manbalarga qaraganda, ular Husayn Boyqaro yetib kelguniga qadar shaharni qo‘ldan boy berishmagan. 1500-y.da harbiy yurishga chiqqan Husayn Boyqarodan M.V. ka harbiy xarajatlar u-n aholidan qo‘shimcha soliq yig‘ish haqida farmon kelgan. U buni N.ga ma’lum qilgan. N. xalqqa noo‘rin soliq solishni lozim topmagan va zarur bo‘lgan mablag‘ni o‘z xazinasidan bergan.

Sulton Husayn vafotidan so‘ng (1506) M.V. ning mavqeyi biroz pasaygan bo‘lsa-da, ulug‘ beklar sirasida turgan. Keyinroq Mashhadga Kepak mirzo huzuriga borgan. Shayboniyxon qo‘shini Mashhadga yurish qilgan vaqtda M.V. ularga qarshi jangda ishtirok etgan. Jangda shayboniylar qo‘shini g‘olib chiqqan va M.V. qochib Tabas qal’asiga kirmoqchi bo‘lgan, lekin dorug‘a uni kiritmagan va M.V. Shayboniyxon oldiga kelib taslim bo‘lgan. Xon uni Samarqandga yuborgan. 1512-y.da Bobur Samarqandni olganda, M.V. uning xizmatiga kirgan. Bu amirning undan keyingi taqdiri haqida manbalarda ma’lumotlar uchramaydi.

Ad.: *Ғиёсиддин Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – T., 1967; Ғиёсиддин Хондамир. Буюклик хислати. – T., 2011; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – T., 2002; Навоий замондошлари хотирасида. – T., 1985.*

Q.E.

MUHAMMAD ZAMON MIRZO (1496–1539) – Badiuzzamon mirzoning o‘g‘li. Onasi turkman beklaridan Tahamtanbekning qizi bo‘lgan. Shayboniylar Xurosonga bostirib kirganda, amakisi Faridun Husayn mirzo b-n Domg‘onda ularga qarshilik ko‘rsatgan, so‘ng yengilib, asirlikka tushgan (1506). Asirlikdan qutulib, Iroq va Ozarbayjonga ketgan. Yetti – sakkiz yildan keyin kelib Astrobodni egallagan, lekin safaviylar qo‘shini uni siqib chiqargan. M.Z.M. Balx atroflariga kelib, mazkur viloyatda o‘z hokimiyatini o‘rnatish u-n kurashgan. O‘sha vaqtda Bobur ham Balxni qo‘lga kiritish u-n harakat qilayotgandi. Boburning amirlaridan Ibrohim tag‘oyi M.Z.M.ni qo‘lga tushirib Kobulga Bobur huzuriga yuborgan. Bobur mirzoga ko‘p iltifot va inoyatlar ko‘rsatib o‘ziga kuyov qiladi va Balx viloyatini beradi. 1526-y.da Shayboniylar Balxga hujum qilib, uzoq qamaldan so‘ng uni egallaydilar. M.Z.M. Hindistonga, Bobur huzuriga ketadi. Bobur uni Bihor viloyatiga hokim etib tayinlaydi. Bobur vafotidan so‘ng, M.Z.M. Humoyunga qarshi isyon va fitnalarda ishtirok etgan. 1539-y. da olamdan o‘tgan M.Z.M. nomi N. asarlarida uchramaydi, zero N. hayot paytida M.Z.M. kichik yosh bola bo‘lgan.

Ad.: *Хондамир. Ҳабиб ус-сияр. – T., 2008; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – T., 2002.*

Q.E.

MUHAMMAD IBN SOM – To‘liq oti G‘iyosuddin Muhammad ibn Bahouddin Som. G‘uriylar sulolasiga mansub hukmdor. Uzoq muddat taxtda o‘tirgan (1163-y.dan 1203-y.gacha). U kishi G‘uriylarning eng mashhur va qudratli vakili hisoblanadi. 1145-y. M.I.S. saljuq turklaridan bo‘lgan Hirot hokimi Yulduzni mag‘lubiyatga uchratib, Hirotni qo‘lga kiritgan. M.I.S. Hirotda ayrim bunyodkorlik ishlarini amalga oshirgan. Hirotning mashhur Jome’ masjidining qurilishi M.I.S. davrida boshlangan. Uning vafotidan so‘ng, masjid vorislari tomonidan qurib bitkazilgan. Bu muhtasham bino keyinchalik Hirot shahrining o‘ziga xos ramziga, hirotliklarning faxri, iftixoriga aylangan. N. ham bu obida b-n faxrlangan hamda vasf etib, quyidagi satrlarni bitgan:

Masjidi Jome' yana bir olame,
Toqi yana bir falaki a'zame.

Shahr jahon, bu ham anda bir jahon,
Ikki jahon bir-biri ichra nihon.

Charx uza zina aning minbari,
Poyasi ul yerg'achakim Mushtari.

Oy kecha qandili jahontob anga,
Qavsh quzah hay'ati mehrob anga.

O'sha davrda Hirotda yuz bergan qattiq yer qimirlashi tufayli masjid katta shikast topgan. Shundan so'ng N. bu binoni rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlarini boshlagan. Bu ulkan ish bir yilga yaqin davom etgan. Zamondoshlarining guvohlik berishicha, ta'mirdan keyin Jome' masjidi oldingidan ham ko'ra ko'proq mahobat va go'zallik kasb etgan.

M.I.S.ning Hirotda ushbu Jome' masjididan boshqa yana bir masjid qurdirgani haqida ham ma'lumot bor. Uning qabri ham Hirotda, deb hisoblanadi.

Ad.: *Ғиёсиддин бин Ғуломиддин Хондамир. Ҳабиб ус-сияр. – Т., 2013; Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

Q.E.

MUHAMMAD MUSAXOJA IBN SAYYID AMINXOJA HUSAYNIY – Buxoro sayyidlaridan. Olim va fozil. Buxoro xattotlik maktabining namoyandasi. Nasta'liq xatida yozgan. N. asarlaridan ikkita qo'lyozma kitobat qilgan: 1. "Risolayi mufradot". Toshkent. Abu Rayhon nomidagi ShI. Inv. № 4565-U. 8 varaq. 1221/1806–07-yy.da ko'chirilgan. 2. "M.Q.", "X.M.", "L.T.": Inv. № 149. 557 varaq. Buxoroda 1228/1813-y.da ko'chirilgan.

Ad.: *Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. – Т.,1991; Собрание восточных рукописей академии наук Узбекистан. VII. – Т., 1964.*

Muh.A.

MUHAMMADALIXOJA IBN NASRIDDINXOJA – Samarqand xattotlik maktabi vakili. U N.ning "Terma devon", "V." va "M.Q."-ni bir qo'lyozma holida ko'chirgan. Abu Rayhon Beruniy nomidagi ShQM.da Inv. № 919, 365-varaq.

Ad.: *Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. –Т.,1991; Собрание восточных рукописей академии наук Узбекистан. VII. – Т., 1964.*

Muh.A.

MUHAMMAD MUAMMOIY – (XV asr) – Hirotlik shoir va arbob. Shahar ahli uni "Piri Muammoiy" deb atagan, tabiatan xushchaqchaq kishi bo'lgan. N. "M.N."da yozishicha, M.M. Xusrav Dehlaviy asarlarini eng ko'p jamlagan ekan. Tazkirada u Abulqosim Bobur saroyidagi shoirlaridan bo'lgani aytiladi, shuningdek, badehago'ylikka mohirligi borasida ta'riflar keltiriladi. O'sha davr adabiy muhitida muammo juda mashhur edi. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, N. Abulqosim Bobur saroyida xizmat qilib yurganida, muammo fani bo'yicha undan M.M.dan saboq olgan.

Abulqosim Bobur zamonida sadrlik lavozimida ishlagan, keyin ham saroyda ko'zga ko'ringan arboblardan bo'lgan. N. "M.N."da keltirishicha, o'z davrida Sherozda Hofiz Sheroziy qabri ustida gumbaz qurdirgan va Bobur Mirzoni taklif qilib, ziyofat tuzganida, Sheroz sho'xtab'laridan biri Mirzoning ko'zi tushar joyida devorda quyidagi baytni yozib qo'yibdi:

Agarchi jumlayi avqofi shahr g'orat kard,
Xudosh xayr dihod on ki in imorat kard.

Tarj.: Ya'ni, Agarchi shahar vaqflarini butunlay sovurgan esa-da, shu binoni qurdirgan odamning Xudo xayrini bersin.

Mirzo o‘qib kuladi. A’yonlar hazil-huzul qilishadi. N. b-n yaqin bo‘lgani u-n unga bu voqeani o‘zi aytib beradi. Hayoti oxirida M.M. Kichik Mirzo (q.) b-n hajga borgan va o‘sha yerda dunyodan o‘tgan.

“S.”da vafot etgan do‘stlari qatorida uning nomi ham tilga olingan, shunday ekan u N.dan avval dunyodan o‘tganligi ayon bo‘ladi. Tazkiraga ko‘ra, M.M.ning qabri Hirotda bo‘lgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Соқийнома. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011.*

S.G‘., M.A.

MUHAMMAD NIZOMIY – N.ning zamondoshi, yaqin suhbatdoshi, olim. Husni oliynasablik belgilari hamda aqliy va naqliy fanlardagi chuqur bilimi b-n oro topgan, riyoziyot-u falsafa fanlarida o‘z davri olimlarining sarasi edi. Sog‘lom tafakkuri ilgari o‘tgan olimlar asarlaridagi yashirin sirlarni ochguvchi, o‘tkir zehni esa zamondosh fozillar kitoblar xazinasining timsoli edi.

O‘z zamonasining aksariyat bilimlarini M.N. huzurida o‘qib-o‘rgangan. N. uni “muallim” deb ta’riflagan va unga nisbatan hurmati juda yuqori bo‘lgan. N. bir necha bor Ixlosiya, G‘iyosiya va Badiiya madrasalarida dars berishni o‘zining ana shu ustoziga topshirgandi.

M.N. hijriy-qamariy 919 (milodiy 1513) yili Hirotdan Balxga ketadi va bir necha vaqt bu viloyatda kuyovi Mir Sadriddin Yunusnikida yashaydi. Oradan bir necha vaqt o‘tgach olamdan o‘tadi.

M.N.ning “Hoshiyayi sharhi “Hidoyayi hikmat” (“Hikmat hidoyati” asari sharhiga yozilgan izohlar”), “Hoshiyayi “Sharhi arba’in” (“Qirq hadis sharhi” kitobiga yozilgan izohlar”), “Sharhi “Mi’at ul-omil” (“Yuz omil” asariga yozilgan sharh”), “Hoshiyayi “Muxtasar” (“Muxtasar” asariga izohlar”) va boshqa asarlari avvaldan ilm ahli o‘rtasida mashhur bo‘lib, o‘quvchiga boy ilmiy ma’lumotlar berardi.

Ad.: *Гиёсиддин ибн Ҳумомиддин Хондамир. Ҳабиб ус-сияр фи ахбори афрод ал-башар (Инсонлар қиссаларидан энг яхши таржимаи ҳоллар) 4-жилд // Устод Жалолиддин Ҳумоий нашрга тайёрлаган. – Теҳрон: 1954.*

K.R.

MUHAMMAD NURI − islom ta’limotiga ko‘ra, olamning asosini tashkil etgan nur. M-n., olam-u odam yaratilmasdan burun ham bor edi. Alloh taolo avval M.N. Muhammad (s.a.v.)ning nurini yaratib, keyin shu nur tufayli olamlar-u odamlarni vujudga keltirgan. Chunki Alloh taoloning olamni ham, odamni ham yaratishdan maqsadi – Muhammad (s.a.v.) bo‘lgan. Shuning u-n “Qisasi Rabg‘uziy”da bu nur, hatto Odam (a.s.)ning manglayida porlagani haqida xabar beriladi:

“Mavlo azza va jalla (Qudratli va ulug‘ Alloh) Odamni qamug‘ (barcha) ko‘rkluklar birla bezadi. Tishlarindin nur balqinur erdi, ko‘z nuri mengizlik (kabi). Muhammad al-Mustafoning nuri Odamning oldinda qo‘miyur (bu yerda: o‘ynamoq, porlamoq) erdi to‘lun oy mengizlik. Odam ul nurning yoruqluqin ko‘rub, bu nurni man bir ko‘rsam teb ko‘sadi (istadi) ersa, izi (Xudo) azza va jalla yorliqi birla ul nur Odamning olnidin o‘ng yangoqingg‘a indi. Yana egniga indi, andin Odam qo‘ling‘a. Ilkini (qo‘lini) ul nurg‘a ko‘turu berdi. Nur andin inib, shahodat ernakining (barmog‘ining) uchinda to‘ruqdi (to‘xtadi). Odam ernakin yuqoru ko‘turub, aning ko‘rkin ko‘rub tonglab (hayron bo‘lib): “La ilaha illallohu Muhammadun rasululloh” (“Allohdan o‘zga iloh yo‘q, Muhammad uning elchisidir”) dedi”. Shuning u-n ham N. boshqa bir g‘azalida:

Vujuding ikki jahon xilqatidin o‘ldi murod,
Nechukki, zoting o‘lub ikki kavndin maqsud,

deb yozsa, boshqasida:

Olam-u odam fidong o‘lsunki, borsen,
ey habib,
Sen g‘araz insondin ar, olamdin
insondur g‘araz, –

deydi.

Birinchi baytda Allohning ikki olamni yaratishidan maqsad sening zoting deyilsa, ikkinchisida olam, odamdan maqsad sensan, degan fikr ifodalanmoqda.

Ma'lum bo'ladiki, garchi vujudan Odam Ato oldin olamga kelgani bo'lsa-da, mohiyatan, M.N.ni Xudo hammadan avval yaratgan. Shuning u-n ham N. g'azallarida suvratda Odam Ato Muhammad (s.a.v.)ga ota bo'lsa ham, siyratda, ya'ni mohiyatda Odam Ato Muhammad (s.a.v.) ga farzand ma'nosidagi baytlarga ko'p duch kelamiz. Quyidagi bayt buning yorqin dalili:

Odamki, bashar nasli silkiga erur payvand,
Suvratda sanga volid, ma'noda sanga farzand.

Maz.: Ipga tizilgan shodadek butun inson nasli o'ziga payvand, ya'ni u butun insoniyatning tarqalishiga sababchi bo'lganiga qaramay, Odam (a.s.)zohiran hamma qatori senga ham ota ko'ringan bilan aslida – mohiyatda farzand hisoblanadi (ya'ni u ham sening nuringdan, sen tufayli yaratilgan.

Farishtalarning insonga sajda qilishiga sabab ham uning naslidan Muhammad (s.a.v.)dek bashar tojining dunyoga kelishi edi. "T.A.H."da yozilishicha, Odam (a.s.)ni yaratish u-n hozirgi Makkayi mukarrama joylashgan yerdan jannatga olib kirilgan bir hovuch tuproqdanoq "Muhammad (s.a.v.)ning (unga Allohning duosi va salomi bo'lsin) tiynatin (bu yerda: zuvalasin) tasnim suyi bilan yug'urub, borcha maloikka arz qildilarkim, maqsudi olam va odam ofarinishi (yaratilishi) muning xilqatidur, oxir uz-zamon payg'ambari bo'lg'usidur". Shuning u-n ham shoir boshqa g'azalida yozadiki:

Xoki poyingni maloyik qildilar toji sharaf,
Alloh-Alloh, kim ko'ruptur bu sifat
zoti sharif.

Muhammad (s.a.v.) Allohning eng so'nggi va komil payg'ambari, barcha mavjudot va maxluqotning afzali hisoblanadi. Nafaqat insoniyatning yaratilishi, balki N.ning "M." asarida yozilishicha, "Yuz yigirma to'rt ming anbiyoyi mursal xilqatidan murod – ul va barcha anga xayl va o'n sakiz ming olam ixtiro'idin maqsud-ul va ofarinish ang'a tufayl". Shunday ekan, u husn-u jamolda ham, ilm-u axloqda ham, nubuvvatda ham barcha payg'ambarlardan ustun.

Ad.: *Рабғузий. Қисаси Рабғузий. 1-китоб. – Т., 1990; Комилов Н. Тасаввуф. Т., 1996; Ғаффорова З. Ўн саккиз минг олам сарвари // "Тафаккур", 1997, № 2.; Очилов Э. Бир ҳовуч дур. – Т., 2011.*

E.O.

MUHAMMAD OLIM (t.y. va v.y.n., Samarqand – Hirot) – olim, shoir. Samarqand ulamolari jumlasidan. Mirzo Ulug'bek b-n hamsaboq va hamsuhbat bo'lgan. Nihoyatda jasoratli, sho'xta'b, ayni paytda, behayo va befarosat kishi bo'lgan. Ilmiy-adabiy bahs-u munozaralarda ko'p andishasiz so'zlar aytishi, adabsiz javoblar qilishi jihatidan saltanat sohibining toqati toq bo'lib, uni Samarqanddan chiqarib yuborgan. Hurmatini joyiga qo'yishgani u-n Hirotda yashab qolgan va shu yerda dafn etilgan. N. "M.N." tazkirasida ijodidan namuna sifatida bir matla'sini keltiradi:

Mo siyahro'zemu badro'zemu axtarso'xta,
Sham'i maqsud baroi xud shabe n-afro'xta.

Tarj.: Biz maqsadi shami bir kecha ham shu'la sochmagan bir baxtiqaro-yu yomon kunga qolgan-u tole yulduzi kuygan (banda)miz.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

M.A.

MUHAMMAD SAYYIDXOJA – olim va fozil. Buxoro xattotlik maktabi vakili. Nasx va nasta'liq xatida yozgan. "X."ni Qarshi shahrida 1250/1834–35-yilda kitobat qilgan. Toshkent Abu Rayxon Beruniy nomidagi ShI. Inv. №

11301. 328 varaq. Asar aniq va ravon, chiroyli nasta'liq xatida ko'chirilgan. Qo'lyozma badiiy lavhalarga ega.

Ad.: *Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. –Т.,1991; Собрание восточных рукописей академии наук Узбекистан. VII. – Т., 1964.*

Muh.A.

MUHAMMAD SIDDIQ YORKANDIY (XVIII–XIX) – uyg'ur adibi, shoir va tarjimon. Ma'lumki, N. "X."sining ilk nasriy bayonlari uyg'ur adabiyotida yaratilgan. Uyg'ur dostonchiligining rivojiga "X." dostonlari katta ta'sir ko'rsatgan. M.S.Y. ham N. dostonlarini uyg'ur tiliga nasriy yo'l b-n baytma-bayt o'girgan (1813). "H.A." o'rniga "L.T." dostonini tarjima qilgan hamda bu ishning bajarilishiga homiylik qilgan Yorkend hokimi Mirzo Muhammad Husaynbek sharafiga "Nasri Xamsa", "Nasri Muhammadbek" nomi b-n atagan. Mazkur nasriy bayon shunchaki bayonchilik tarzidagi ish bo'lmay, adibning katta tayyorgarligi asosida yuzaga chiqqan. "S.I." qismi 1861-y. Yorkentda Abduqayum Xo'ja tomonidan ko'chirilgan va "Buloq" adabiy majmuasida nashr qilingan (1984). Uyg'ur adabiyotidagi N.ga izdoshlik asosida yaratilgan dostonlar, nasriy bayonlar haqida R.Qodiriy, H.Solihovalar maxsus tadqiqot olib borishgan.

Ad.: *Қодирий Р. Уйғур адабиётида Навоий анъаналари // "Адабий мерос". 1963. 1-китоб; Солиҳова Ҳ. Уйғур достончилиги ва насри тараққиётида Алишер Навоий "Хамса"сининг ўрни. Филол. фан. д-ри... дисс. – Т., 1995.*

O.T.

MUHAMMAD SOLIH (1451, Xorazm – 1435, Buxoro) – o'zbek shoiri, o'zbek mumtoz adabiyotining taniqli vakillaridan biri, "Shayboniynoma" asarining muallifi. Xorazmda tug'ilgan bo'lsa-da, Hirotda ta'lim-tarbiya olgan. Sulton Husayn Boyqaro saroyida xizmat qilgan. Keyinchalik Xurosonni tark etib Samarqandga kelgan. Buning sababi uning temuriy hukmdorlardan ko'ngli qolgan edi. Samarqandda birmuncha vaqt u Xoja Yahyo huzurida bo'lgan (1497). Keyinroq esa Shayboniyxon xizmatiga kirgan (1499). Buni u Mulla Abdurahim Sadrning targ'ibi tufayli qilgan. U M.S.ga temuriylar sulolasining halokati yaqinligi, hukmronlik Shayboniyxon qo'liga o'tishi haqida aytib, uni xon xizmatiga kirishga da'vat etgan. Shu paytdan boshlab M.S. Shayboniyxonning urushlarida ishtirok etib, shohning ishonchini qozongan. "Shayboniynoma" asarini ana shu yillarda bevosita o'zining ko'rganlari va taassurotlari asosida yozgan.

Yuqorida aytilganidek, M.S. yoshligida Hirotda ta'lim-tarbiya olganligi, so'ngra Husayn Boyqaro saroyida xizmat qilganligi tufayli N. b-n shaxsan tanish edi. N. uning otasi Nursaidbekni ham yaxshi bilgan. M.S.ning otasini N. "M.N."ning ikkinchi majlisiga kiritgan. Shuningdek, "S." asarida ham uning nomini tilga olgan. "M.N."da N. M.S. haqida ham ma'lumot beradi. Shunisi qiziqki, u M.S.ni "M.N."ning 5-majlisiga kiritgan.

Ma'lumki, ushbu majlisda Xuroson va boshqa yerlarning aslzodalari, she'r yozib turadigan, lekin bu ish b-n doimiy shug'ullanmaydigan, ya'ni o'zini she'riyatga bag'ishlamagan kishilar zikr etilgan. N. bu haqda shunday yozadi: "Xurosonning va ba'zi yerning mirzodalari va soyir ozodalari zikridakim, tab' salomati va zehn istiqomati alarg'a boisi nazm bo'lur, ammo mudovamat qilmaslar".

Bobur esa o'z asarida uni Sulton Husaynning amirlari qatorida emas, uning davrida ijod qilgan shoirlar sirasida tilga oladi. Aftidan, M.S.ning shoir sifatida e'tirof etilishi "M.N." yaratilgandan keyingi davrga to'g'ri kelgan. N. M.S.ning iste'dodli va qobiliyatli ekanligini qayd qiladi: "Tab'ida xeyli diqqat birla choshni bor. Xatqa ham qobiliyati ko'bdur". Uning

Husayn Boyqaro xizmatidan ketib qolishini N. ma'qullamaydi va xato ish deb hisoblaydi. Uning fikricha, ayrim yomon do'stlari M.S.ni yo'ldan urib, shu ishga sabab bo'lganlar. Tazkirada bir forsiy tilda bitilgan bayt M.S. ijodidan namuna sifatida keltirilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 2002; Муҳаммад Солиҳ. Шайбонийнома. – Т., 1960.*

Q.E.

MUHAMMAD TABODGONIY (To'liq ismi Mavlono Shamsuddin Tabodgoniy) (1399–1486, Hirot) – N. davridagi mashhur shayxlardan. Xonaqohi va ko'p muridlari bo'lgan. Shayx Zayniddin Xavofiy xalifalaridan bo'lib, Hirotdagi madrasayi Sabzda zohiriy ilmlarni o'rgangan, keyin tariqatga mashg'ul bo'lib, qisqa fursatda ulug' natijalarga erishgan. Zohiriy va botiniy ilmlarda komil bu zot o'z zamonasining ma'naviy murshidi bo'lib, xonaqohi va ko'plab muridlari bor edi. Xalqning unga e'tiqodi tom bo'lgan. N. uning fazl-u kamoli ta'rifdan tashqari ekanini qayd etadi. Qirq yilga yaqin elga irshod ko'rgizgan. "Qasidayi Burda"ni muxammas qilib, Abdulloh Ansoriyning "Manozil us-soyirin" asariga sharh bitgan. Yana "Asmoulloh" sharhi, "Vasoyo" va "Arba'in" tarjimasi ham uning qalamiga mansub.

1461–62-yy.da Samarqandga kelib, Kafshir mahallasida Xoja Ahror Valiy va uning yaqinlari b-n uchrashgan. Samarqandda unga ikki voizgina ma'qul bo'lgan ekan: Sayyid Oshiq va Abusaid Toshkandiy.

M.T.da pand-u nasihat vositasi b-n xalqni hidoyat yo'liga boshlash istagi kuchli bo'lgan. Samo mayli kuchli edi. Qo'shiq-u kuydan ta'sirlanib, u samoga berilganda odamlar yig'lashga tushardilar. Muridlar tarbiyasi, ularni chilla o'tirg'izish b-n mashg'ul edi. Sayyid Hasan Ardasher ham uning muridi bo'lgan. N.ga iltifoti ko'p edi. "Xam.M."da bir kuni "Hazrati irshodpanoh va valoyati dastgoh halloli mushkiloti maoniy Mavllono Muhammad Tabodgoniy"dan bir masalani so'ragani va uning javobi b-n Jomiyniki bir xil chiqqani haqida ma'lumot beradi.

Amir Sayyid Hasan va Amir Shayx Ahmad (Suhayliy)ga yozgan maktublarida duoyi salomi yoki iltimosini hazrat N.ga, albatta, yetkazishni so'ragan: "Hazrati amorat maobiy va iyolat panohiy mulozimlariga (ya'ni N.ga) duoyi darveshonamizni yetkazurlar" yoki "Hazrati amorat maobiy va iyolat panohiy (ya'ni N.)ni ogohlantirsinlarki, toki ular chiroyli harakatni ishga solib, iltifot qilsinlar, to haq joyida qaror topsin". Ma'lum bo'ladiki, M.T.dek yuksak lavozimdagi kishilar, ham N.ga turli iltimos va talablar b-n bemalol murojaat qila olgan.

87 yoshida Chilgaziy mahallasida olamdan o'tib, Xiyobon mavzeyiga dafn qilingan. "Qutbi zamon biraft" – "zamon qutbi – rahnamosi ketdi" uning vafoti ta'rixi bo'lgan (1486). Muxlislaridan ba'zisi qabri boshida xonaqoh va masjid bunyod etganlar, deb ma'lumot beradi N. lekin Xondamirning "Makorim ul-axloq" hamda Mir Abdulavvalning "Masmuot" kitoblaridan ma'lum bo'lishicha, bu muxlis N.ning o'zi bo'lgan. Jumladan, Xondamir M.T. qabri boshida "Jamoatxona" degan xonaqoh qurdirgani haqida ma'lumot beradi.

O'g'li Mavlono Hamiduddin Tabodgoniy uning ishini davom ettirgan.

M.T. tab'i nazmdan ham bebahra bo'lmagan va N. "M.N."da uning quyidagi matla'sini keltiradi:

Onho, ki ba juz qomati sarvat nigaronand,
Gar rost bigo'yi hama ko'tahnazaronand.

Tarj.: Sening sarv qomating turganda, boshqa narsalarga qaraydiganlarning barchasi chindan ham nazari past kaltabinlardir.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер*

Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Хамсат ул-мутаҳаййирин. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд; Ўринбоев А., Ҳасанов М. Навоий замондошлари мактубларида. – Т., 1990; Хондамир. Макорим ул-ахлоқ (П.Шамсиев тарж.). – Т., 1948.

E.O.

MUHAMMAD SHAYBONIYXON (1451, Dashti Qipchoq – 1510, Marv) – davlat arbobi, shoir. Bir asrdan ko‘proq hukm surgan shayboniylar saltanatini barpo etgan M.Sh. Dashti Qipchoqdagi O‘zbek ulusi xoni Abulxayrxonning o‘g‘li Shoh Budog‘ Sulton xonadonida tug‘ildi. Bolaligida uni Shohbaxt deb ataganlar. Ota-onadan yosh yetim qolgan Shohbaxt bobosi Abulxayrxonning tarbiyasida o‘sdi. Lekin Abulxayrxonning vafotidan keyin toj-u taxt atrofida avj olgan to‘polonlar natijasida 17 yoshlik Shohbaxtning darbadarlik hayoti boshlanadi. Chunki Iboqxon, Burka Sulton, Jonibekxon, Girayxon kabi Abulxayrxonning siyosiy raqiblari mang‘it amirlaridan Yomg‘urchi va Muso Mirzolar b-n qo‘shilishib, uning o‘rniga taxtga o‘tirgan Shayx Haydarni o‘ldiradilar. Dashti Qipchoqda hokimiyatni qo‘lga kiritish u-n Abulxayrxonning butun avlodini qirg‘in qiladilar. Ana shunday vaziyatda Shohbaxtni otasining mulozimi Qorachabek Sirdaryo bo‘ylariga olib ketadi.

1482-y. bahorida u qal’adan-bu qal’aga, u shahardan bu shaharga ko‘chib, sarson-sargardon bo‘lib yurgan Shohbaxt temuriy hukmdorlardan Sulton Ahmad Mirzoning taklifiga ko‘ra, Samarqandga kelib, chegara noibi Majid Tarxon xizmatiga kiradi. Uni “buyuk xon”ning nabirasi sifatida alohida hurmat b-n kutib oladilar. Keyinchalik Abdulali Tarxon uni Buxoroga taklif etadi. Tez orada u Abdulali Tarxonning yaqinlari qatoridan o‘rin oladi. Temuriy hukmdorlar M.Sh.ga Dashti Qipchoqda o‘z siyosatini amalga oshiruvchi shaxs sifatida qarashardi.

M.Sh. Buxorodagi yillarini ilm tahsili b-n o‘tkazdi. U o‘z davrining mashhur allomalaridan Mavlono Muhammad Xitoyi, Jaloliddin Azizon, Shayx Mansur qo‘lida tahsil oldi. Arab va fors tillarini o‘rgandi, Hofizi Qur’on, shariat masalalaridan bahs yuritadigan nuktadon faqih bo‘lib yetishdi. U, xususan, Bahouddin Naqshbandning 2-xalifasi – Muhammad Porsoning izdoshlaridan Hofiz Husayn Busiriy va uning muridi Xoja Mahmud b-n yaqin aloqada edi. M.Sh. bir muddat Naqshband mozorida yashab, uning nabirasi Xoja Mir Muhammad xizmatini qilgan.

Shayboniy sultonlarning barchasi aziz-avliyolarga alohida hurmat-e’tiqodi b-n ajralib turishgan. Ularning ko‘pi, jumladan, Mahmud Sulton va uning o‘g‘li Ubaydulloxon so‘fiylik, darveshlikka moyil edilar. M.Sh. ham bu xislatlardan benasib emasdi. Ba’zi manbalarda uning so‘fiy shoir sifatida tilga olinishi shundan dalolat beradi. Qolaversa, o‘zi so‘fiylik ruhida “Bahr ul-hudo” degan doston ham bitgan.

Hasanxoja Nisoriyning ma’lumot berishicha, ayrim munofiq, badkirdor kimsalar o‘z tuhmat-u yomonliklari b-n M.Sh.ni Buxorodan chiqib ketishga majbur qilganlar. Shunda u madad so‘rab, Xoja Bahouddin Naqshband mozoriga boradi va nabirasi Xoja Mir Muhammad xizmatiga musharraf bo‘ladi. M.Sh. siymosida buyuk bir saltanatning asoschisini ko‘rgan Xoja uni to vaziyat yetilguncha o‘z huzurida ushlab turadi, fursat kelganda, bu davlatning kalitini Turkiston viloyati tomonlardan izlash kerakligini aytib, unga oq fotiha berib jo‘natadi.

Shundan so‘ng, u toj-u taxt havasidan yana Dashti Qipchoqqa ketadi. Lekin 2 yillik ovoragarchiliklardan biror-bir ish chiqarolmay, qaytib keladi. Sulton Ahmad Mirzo mo‘g‘ul xoni Yunusxonning o‘g‘li – Toshkent hokimi Sulton Mahmudga qarshi kurashda undan foydalanmoqchi bo‘ladi. Ammo Samarqand beklarining unga qarshi fitna uyushtirgani tufayli M.Sh. Toshkentga hujum boshlangan vaqtda qo‘l ostidagi butun qo‘shin b-n mo‘g‘ullar tomoniga o‘tadi. M.Sh. yordami tufayli bu jangda g‘olib chiqqan Sulton

Mahmud uning xizmatini unutmaydi. Zafarga erishgach, uni moddiy va harbiy jihatdan qo‘llab-quvvatlaydi, so‘ng homiysining ko‘magi b-n M.Sh. Samarqand-u Buxoroni qo‘lga kiritadi. O‘z maqeyini kuchaytirishi hamon Sulton Mahmudni oradan chiqarib, Toshkentni ham egallaydi.

Temuriy shahzodalar o‘rtasida birlig-u ittifoq yo‘qligidan foydalangan M.Sh. qisqa bir fursatda – 1499–1507-y.y. mobaynida Buxoro, Samarqand, Toshkent, Shohruxiya, Farg‘ona, Qunduz, Xorazm, Hirot, Balxni ishg‘ol qilib, Movarounnahr va Xurosonni to‘la o‘z qo‘liga kiritadi. Shu tariqa o‘zaro urushlar, toj-u taxt talashlari oqibatida zaiflashib, inqiroz ostonasida turgan temuriylar davlati o‘rniga nisbatan mustahkam shayboniylar davlatini tuzganligi M.Sh.ning tarixiy xizmati edi.

M.Sh. 1510-y.da Marv yonida Eron shohi Ismoil Safaviy qo‘shinlari b-n bo‘lgan jangda shahid bo‘ladi. Uning jasadi jiyani Ubaydulloxon tomonidan Samarqandga keltirilib, o‘zi qurdirayotgan madrasa oldidagi daxmaga dafn etiladi.

M.Sh. yirik davlat arbobi, mohir va jasur sarkarda bo‘libgina qolmay, o‘z davrining barcha diniy va dunyoviy ilmlaridan yetarli darajada xabardor fozil kishisi, ilm-u adabiyot, madaniyat-u san’atga homiylik qilgan, obodonchilikka e’tibor bergan ilg‘or fikrli hukmdorlaridan edi. Uning saroyida Muhammad Solih, Kamoliddin Binoiy, Mulla Shodi, Abdurahim Sadr kabi o‘z davrining peshqadam ilm-u adab ahli xizmat qilgan. “Mehmonnomayi Buxoro” nomli mashhur tarixiy asarning muallifi Fazlulloh ibn Ro‘zbehxon xonning ustozi, maslahatchisi va xos muarrixi edi.

Shayboniylar hukmronligi davrida tarixiy va badiiy adabiyotda o‘zbek tilining mavqeyi kuchaydi. Xonning buyrug‘i b-n fors tilidagi va mo‘g‘ul yozuvi b-n bitilgan asarlar turkiy tilga tarjima qilingan.

M.Sh. badiiy ijod b-n shug‘ullangan bo‘lib, uning Sharq mumtoz she’riyatida mashhur 5 janrdagi asarlar – 320 g‘azal, 16 ruboiy, 13 tuyuq, 11 to‘rtlik, 5 ta’rix va 48 muammoni o‘z ichiga olgan tugallanmagan devoni mavjud.

M.Sh. ijodida kitobiy, dabdabali so‘z va iboralar, murakkab jumlalar, deyarli, uchramaydi. Shoh-shoir she’riyati hayotiy timsol-u tashbehlarga boyligi, tilining xalq jonli tiliga yaqinligi, fikrlarining sodda va samimiyligi b-n alohida ajralib turadi. Tadqiqotchilar haqli ravishda ta’kidlaganlaridek, Shayboniy va shayboniylar davri adabiyotidan boshlab adabiy tilning xalq jonli tiliga yaqinlashgani, soddalashgani kuzatiladi. Turkiy she’riyatga xos soddalikni ham bunga sabab qilib ko‘rsatish mumkin.

G‘azallaridan birida:

Bu Shaboniyg‘a Binoiy der: navoye qilingiz,
Chun Navoiyg‘a murassa’ so‘zlari oson erur, –

deb yozgan M.Sh. ijodiga N. chindan ham kuchli ta’sir o‘tkazgan. Bu ta’sir qirralari 3 yo‘nalishda namoyon bo‘ladi: 1) “Mavlono Alisher aytur” deb ulug‘ salafining biror baytini epigraf sifatida olib, keyin shu g‘azal vazni, qofiya va radifida she’r bitadi; 2) shoir g‘azallariga tatabbu’lar qiladi; 3) N. asarlari ta’sirida she’rlar yozadi. M-n:

Mavlono Alisher aytur:

Yo qoshingg‘a qatl uchun ziynat
farovon aylading –
Kim, ham etting lojuvardi,
ham zarafshon aylading.

Shundan keyin ayni g‘azalga ergashib yozilgan o‘z g‘azalini keltiradi:

Qoshlaringning o‘qida kina farovon aylading,
Yurokimni chok etib, sahfa zarafshon aylading.

Har ikki g‘azal ham ramali musammani maqsur vazni (foilotun foilotun foilotun foilun)da yozilgan. Har ikkala g‘azal ham 7 baytdan iborat. M.Sh. salafi g‘azalining barcha qofiyalarini aynan saqlagan: farovon, zarafshon, paykon, pinhon, jon, xiromon, qon, afg‘on. M.Sh. o‘z g‘azalida goh N. g‘azalidagi fikrlarni davom ettirib, ularning yangi qirralarini ochadi, goh mut-

laqo yangi baytlar tizadi. M-n, N. o‘z g‘azalining 2-baytida mahbubaning ikki qoshini ikki yoyga, kiprigini o‘qqa, g‘amzasini esa o‘qning uchiga o‘rnatiladigan uchlik temirga o‘xshatadi:

Bo‘yla ikki yo uchun soz aylabon
kirpikdin o‘q,
G‘amzalar neshidin ul o‘qlarg‘a
paykon aylading.

M.Sh. esa bu tashbehni davom ettirib, yuzing lavhida ikki yoy yozilganining o‘zi ajib edi, sen yana unga g‘amzangni paykon ham qilding deydi:

Lavhi yuzungda ajabdur bu yozilg‘on
ikki yo(y) –
Kim, netib yozib bu yo(y),
g‘amzangni paykon aylading.

Shu tariqa baytma-bayt N. fikru-tashbehlari davom ettirilib, tashbehlarining yangi qirralari ochila boradi. Ba’zida esa o‘z davrining mavjud voqeliklarini tashbeh o‘laroq g‘azal qatiga singdirib yuboradi. G‘azallar maqta’larida esa o‘zaro tafovutni ko‘ramiz.

Ma’lum bo‘ladiki, M.Sh. N.ning avval muayyan matla’sini keltirib, keyin ayni vazn, qofiya va radifda unga javob qilgan g‘azallarida buyuk salafining fikrlarini davom ettirish, tashbehlarining yangi qirralarini ochishni niyat qilgan. Lekin ular quruq taqlid doirasida qolib ketmay, shoh shoir o‘z iste’dodi qirralarini namoyon eta olgan va o‘ziga xos ravishda N. “panjasiga panja” ura olgan.

O‘z tafakkur olami, o‘z tashbehlar silsilasi bo‘lgan, o‘ziga xos fikr va qarashga ega bo‘lgani tufayli M.Sh. N. g‘azallaridan ta’sirlanib va ilhomlanib, ayni qolipda ohorli g‘azallar yarata olgan. Ya’ni N. fikr-u tashbehlaridan hayratga tushgan holda ularni o‘ziga xos ravishda davom ettirish va yangidan yangi qirralarini ochish mumkinligini amalda isbotlagan.

M.Sh.ning qator g‘azallari esa, garchi ularda N. ta’siriga ishora qilinmagan bo‘lsa-da, ulug‘ shoir g‘azallariga tatabbu’dir. M-n, N.ning mashhur:

Ko‘kragimdur subhning pirohanidin
chokrok,
Kiprigim shabnam to‘kulgan
sabzadin namnokrok, –

bayti b-n boshlanadigan g‘azali ta’sirida:

Ko‘nglum o‘ldi g‘unchaning
ochilg‘onidin chokroq,
Ashki to‘lg‘on sabzalardin
ko‘zlarim namnokroq, –

matla’li g‘azalini yozadi. N. “Ko‘ksim tong ko‘ylagidan ham chokroq, kiprigim esa shabnam to‘kilgan maysadan namroq” deb mubolag‘a qilsa, M.Sh. esa “Ko‘nglim ochilgan g‘unchadan ko‘ra chokroq, ko‘zlarim esa shabnam suviga to‘lgan maysadan namroq” deya yangi va o‘ziga xos tashbehlar qo‘llaydi. M.Sh. g‘azali shu tarzda o‘ziga xos timsol-u tashbehlar orqali davom etadi.

M.Sh. N.ning mashhur “Topmadim” radifli g‘azaliga ham o‘ziga xos ohorli tatabbu’ qiladi:

Mehr ko‘p ko‘rguzdum, ammo,
mehribone topmadim,
Jon base qildim fido, oromi jone
topmadim.

Daryoi ishqingni kezib, hargizki
poyon topmadim,
Men mubtalo girdobida qoldimki,
darmon topmadim.

Shoh shoirning bir qator g‘azallari esa buyuk salafi ta’sirida yaratilgan. M-n:

Yorkim, ko‘rdi yuzini sof may
ko‘zgusida,
May ichib, sarmast o‘lsam ushbu
yor o‘trusida, –

bayti N.ning mashhur “Yor jamolin mayda ko‘r deb jomdin chiqti sado” misrasi ta’sirida yaratilgani ko‘rinib turibdi.

Yor dedikim, boshingi qil fido, qildim anga,
Har ne bo‘lsa yorlig‘ andog‘ qilay bosh ustina, –

bayti esa N.ning:

Men qachon dedim vafo qilg‘il manga,
zulm aylading,
Sen qachon deding, fido bo‘lg‘il mango,
bo‘ldum sanga, –

bayti ta’sirida yozilgan.

Ma’lum bo‘ladiki, N.ning M.Sh. ijodiga ta’siri xalaf shoirning salaf shoir muayyan g‘azali matla’sini keltirib, o‘sha vazn-u qofiya-yu radifda g‘azal yozib, o‘zi ilhomlangan g‘azaldagi fikrlarni davom ettirishi va rivojlantirishi, timsol-u tashbehlarning esa yangi qirralarini ochishida; ustoz so‘z san’atkori g‘azallariga tatabbu’ qilib, ayni mavzuda o‘z qalamini kuchini sinab ko‘rishida va ulug‘ shoir ta’sirida navoiyona bayt-u misralar tizishida yorqin namoyon bo‘ladi.

Ad.: *Siban Xan Divani (Inceleme – Metin – Dizin – Tipkibasim). Dr. Yakup Karasoy. – Anqara, 1998. Ҳасанхожа Нисорий. Музаккири аҳбоб. – Т., 1993; Вамбери Ҳ. Бухоро ёхуд Мовароуннаҳр тарихи. – Т., 1990; Тазкираи Қайюмий. 1-китоб. – Т., 1998; ЎзМЭ. 9-жилд. – Т., 2005.*

E.O.

MUHAMMAD QAZVINIY (t.y.n. Qazvin – v. 966/1558–59) – Muhammad bin Muborak al-Qazviniy – tabib, olim va tarjimon. Sulton Salimning saroy tabibi bo‘lgan. Shuning u-n “Hakimshoh” unvoni b-n shuhrat qozongan. Asosiy tahsilni ona shahri Qazvinda olgan, mashhur olim Jaloliddin Davoniyning shogirdi edi. M.Q. qalamiga bir necha din tarixiga oid kitoblar, sharhlar, tilshunoslik yuzasidan risolalar mansub. O‘sha davrlarda taniqli bo‘lgan Damiriyning “Hayot ul-hayvon” asarini turkiy tilga tarjima ham qilgan. M.Q. 929/1522–23-y.da N.ning “M.N.” nomli tazkirasini fors tiliga Istanbulda tarjima qiladi va uni turk sultoni Salim I (1512–1520) ga bag‘ishlaydi. M.Q. o‘z tarjimasining ro‘yobga kelib sababini muqaddimada shunday bayon qiladi: “Navoiy tazkirasida keltirilgan she’rlar fors tilida, shoirlar haqidagi ma’lumotlar esa turkiyda (Qazviniy “turkiyi totor” deydi). Bu tilni ko‘pchilik bilmagani sababli forschaga tarjima qilindi. Toki she’r bilan shoirlar haqidagi ma’lumotlar bir tilda bo‘lsin va forsiyzabonlar ulardan to‘la bahramand bo‘lsinlar”.

M.Q. asarning nomini o‘zgartirmaydi, “majlis”larni esa “behisht” deb ataydi, Husayn Boyqaroga bag‘ishlangan VIII majlisni VII majlis oxiriga qo‘shib yuboradi va o‘zi tarafidan maxsus fasl – “behisht” ochadi va bu yangi “behisht”ni ikki qismga – “ravza”ga bo‘ladi. Ularning birinchisida mumtoz shoirlar (Jomiyning “Bahoriston”i asosida), ikkinchisida esa Sulton Salim she’riyati va uning saroyidagi 150 ta shoir haqida ma’lumot beriladi. M.Q. N.ning shoirlarga bergan ta’riflarni tarjima qilar ekan, ular haqida o‘zi bilgan yoxud eshitgan ma’lumotlarni ilova qilib ketadi. Bu hol va 150 shoir haqidagi yangi ma’lumotlar N. hayoti muhitini o‘rganishda, shuningdek, XVI asrning birinchi yarmidagi usmonli turklar davri adabiy hayotini o‘rganishda muhim manba sifatida ahamiyat kasb etadi. M.Q. ilovalaridan biri N. b-n uning yaqin do‘sti, davrning taniqli madaniyat arbobi Sohib Doro (q.) oralarida bo‘lib o‘tgan zarofatli hikoyani va N. vafotiga Sohib Doro yozgan marsiyasini keltiradi. M.Q. ta’kidlashicha, bu marsiyadagi har baytning ilk misrasida N. tavalludiga, ikkinchi misrasida esa vafotiga ta’rix berilgan. Marsiya har bandi 8 baytdan iborat 5 bandli tarkibband shaklida yozilgan, darhaqiqat “abjad” (q.) hisobida har baytning birinchisidagi harflar raqam yig‘indisidan 844/1441; ikkinchisidan 906/1501-y. chiqadi. M.Q. o‘z tarjimasida keltirgan marsiya matnida uchinchi band tarkibidan bir bayt tushib qolgan.

M.Q. Kotibiy, Binoiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Bobo Savdoiy, Shayx Najmiddin, Sanchiy va boshqalarga qilgan ilovalari ham g‘oyat qiziqarli ma’lumotlardir. M.Q. turkigo‘y shoirlar haqidagi ma’lumotlarni esa qisqartirib yuboradi yo tushirib qoldiradi.

M.Q. ilovalari Sulton Ya’qub Mirzo adabiy muhitiga oid bir qancha muhim ma’lumotlarni ham beradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. – Теҳрон, 1975; Ғаниева С. “Мажолис ун-нафоис”нинг форсий таржимасидаги баъзи иловалар ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1964. 2-сон.; Воҳидов Р. “Мажолис ун-нафоис”нинг форсий таржималари. – Т., 1984; Ғаниева С. “Мажолис ун-нафоис” таржималари ва туркман адабий муҳити // Совет адабиёти, 1987. 6-сон (туркман тилида).*

S.G‘.

MUHAMMAD QOSIM MIRZO (1482, Hirot – 1507, Mashhad) – Husayn Boyqaroning kenja o‘g‘li. Muhammad Mas’um mirzo, Farruh Husayn mirzo, Ibrohim Husayn va Ibn Husayn mirzolar bilan onasi bir, ya’ni Husayn Boyqaroning Popo og‘acha ismli xotinidan tug‘ilgan. Hirot shahrida ulg‘aygan va tarbiyalangan. Manbalarda M.Q.M.ning siyosiy-harbiy va davlat ishlarida ishtiroki birinchi marta 1998-y.da qayd etilgan.

M.Q.M. hayoti va faoliyatining N. b-n bog‘liq nuqtalari ham bor. Yuqorida aytib o‘tilganidek, 1498-y.da Husayn Boyqaro Marvga yurish qilgan va poytaxt Hirotda M.Q.M.ni qoldirgan. O‘sha vaqtda u N.ni uning yoniga qo‘yib ketgan. N. o‘zining “S.” asaridagi quyidagi besh baytni M.Q.M.ga bag‘ishlagan:

Soqiyo, tut menga gulbo‘y qadah,
Xalq ko‘nglidin alamsho‘y qadah.

O‘ylakim solsa ko‘ngul uyig‘a nur,
Tiyralikni itirur sham’i surur.

To beray ko‘nglum o‘lub gulshanvor,
Ko‘zga shahzoda yuzidin anvor.

Anga bersun, yo Rab, to abad,
Ruh ila Qosimi Anvor madad.

Chun so‘zi xushtur, o‘zi xushharakot,
To abad bo‘lsun anga umru hayot.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1–4-жилдлар. – Т., 2011; Хондамир. Буюклик хислати. – Т., 2011; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 2002; Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011.*

Q.E.

MUHAMMADNIYOZ IBN SUBHONQULI – XIX asr Xorazm xattotlik maktabining vakili. Nasx va nasta’liq xatda yozgan. “X.”ni Xiva shahrida 1238/1822–23-y.da ko‘chirgan. Toshkent Abu Rayhon Beruniy nomidagi ShI. Inv. № 6793. 393 varaq.

Ad.: *Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. – Т., 1991; Собрание восточных рукописей академии наук Узбекистан. VII. – Т., 1964.*

Muh.A.

MUHAMMADMADAD IBN YAKRANG SO‘FI ERSORI – Nasta’liq xatida yozgan. “Terma devon”, “M.Q.” va “X.”ni birgalikda ko‘chirgan. Toshkent Abu Rayhon Beruniy nomidagi ShI. Inv. № 11391. 589 varaq. Chorjo‘y shahrida 1803 (1218 hijriy)-y.da chiroyli nasta’liq xatida kitobat qilgan.

Ad.: *Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. – Т., 1991; Собрание восточных рукописей академии наук Узбекистан. VII. – Т., 1964.*

Muh.A.

MUHAMMADALI KOTIB SULTONIY – Ubaydulloxon Ibn Mahmud Sulton saroyi kotibi. Buxoro shayboniylar xattotlik maktabining namoyandalaridan. Mir Ubay kotibning shogirdi. U shu darajada chiroyli yozardiki, ustozidan

farq qilmasdi. Riqo yozuvida unga keladigani Buxoroda yo‘q edi. (960 h.) 1533-y.da “X.”ning “S.S.” va “S.I.” dostonlarini ko‘chirgan. Angliya Oksford universiteti Bodleyan kutubxonasi. Elliot 318, 340. Kotib as-Sultoniy “X.”ning hamma dostonlarini ko‘chirgan bo‘lishi mumkin. Ularning faqat ikkita doston qo‘lyozmasi Bodleyan kutubxonasiga borib tushgan. Har bir doston alohida muqovaga olinib, alohida raqam ostiga olingan. Qo‘lyozmalar nasta’liq xatida.

Ad.: *Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. – Т., 1991; Собрание восточных рукописей академии наук Узбекистан. VII. – Т., 1964.*

Muh.A.

MUHAMMAD HUSAYN MIRZO (1476 – 1496) – Sulton Husayn Boyqaroning o‘g‘illaridan biri. Faridun Husayn Mirzo b-n bir onadan tug‘ilgan. Onasi Minglibiy Og‘acha o‘zbeklardan bo‘lgan. Shahzoda haqida N. “M.N.”ning yettinchi majlisida quyidagicha ma’lumot beradi: “xaloyiq ani adolat va shijoat va saltanat oyinida ko‘p ta’rif qilurlar, ammo ulcha zohir bo‘ldi – bag‘oyat sarkashlik va begonavashlik go‘yo zotida bor. Har taqdir birla derlarkim, bu matla’ aningdurkim va yaxshi tushibtur:

Oludayi gardi zi pai saydki, gashti,
G‘arqi araqe bar dili garmki, guzashti.

Tarj.: Ov ketidan yugurib changga botding, haroratli dil ketiga tushib, terga g‘arq bo‘lding.

“Boburnoma” muallifi shahzoda Abutturob Mirzo haqida to‘xtalarkan, M.H.M. haqida ham mana bunday qaydlarni keltirgan: “Yana bir Abutturob Mirzo edi. Burunlar andin xeyla rushde rivoyat qilurlar edi. Otasining behuzurlug‘i ortqonda o‘zgacha xabar eshitib, inisi Muhammad Husayn Mirzo bilan qochib, Iroqqa bordi. Iroqda sipohiylikni tark qilib, darveshliq ixtiyor qilibtur. Yana andin xabare topilmadi”. Shuningdek, asarda ko‘rsatilishicha, Muhammad Husayn Mirzoni Iroqda Shoh Ismoil b-n birgalikda tutqunlikda ushlashgan. O‘sha paytda unga murid tushgan va rofiziy (shia) mazhabiga o‘tib ketgan. Astorobodda vafot etgan. Faxriy Hiraviy ham u haqida shunday yozadi: “Hazrat xoqoni mag‘furga sarkashlik va muxolifatlik qildi, otasi unga zo‘rlik qilmadi”. Shuningdek, “Ravzat us-salotin”da uning mazkur bayti keltirilgan:

Manam devonayi jo‘lida mo‘y, pirahan choki,
Na az kushtan maro biymi, na az xun rixta boki.

Tarj.: Menman o‘sha sochlari to‘zg‘igan, ko‘ylagi chok devona, Menda na o‘limdan qo‘rqish bor,na qon to‘kishdan vahima.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 2002; Фахрий Ҳиравий. Равзат ус-салотин жавоҳир ул-ажойиб. – Т., 2014.*

M.A.

MUHIDDINOV Muslihiddin Qutbiddinovich – (1945., Samarqqand) n. shunos, adabiyotshunos, f.f.d-ri, prof. “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi” unvoni (2016), “El-yurt hurmati” ordeni b-n taqdirlangan (2020).

M.M.Q. “O‘zbek klassik adabiyotida “Bahrom va Dilorom” hamda “Bahrom va Gulandom” siklidagi dostonlar (“O‘zbek klassik adabiyotida “Bahrom Go‘r” syujetining evolyutsiyasi”, mavzusida nomzodlik (1972), “Alisher Navoiy va uning salaflari ijodida inson konsepsiyasi (“Xamsa”larning birinchi dostonlari asosida)” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyalarini (1995) himoya qilgan. M.M.Q. ilmiy faoliyati davomida 15 ta monografiya, 17 ta o‘quv-uslubiy qo‘llanma, 400 ga yaqin ilmiy-nazariy maqolalari e’lon qilingan.

M.M.Q. respublikamizda pedagogik va ilmiy faoliyatni birdek olib borayotgan zahmatkash

olimlardan sanaladi. U mumtoz adabiy asarlar va figuralar, xususan, ulug‘ shoir N. hayoti va ijodi yuzasidan uzoq yillardan buyon teran tadqiqotlar yaratgan. Jumladan, “Talqinlarda olamcha ma’no”, “Barhayot an’analar”, “O‘zbek klassik adabiyotida gumanizm masalasi”, “Ikki olam yog‘dusi”, “Adabiy an’ana va ijodiy o‘ziga xoslik”, “Komil inson – adabiyot ideali”, “Nurli qalblar gulshani”, G‘aribiyning “Shoh Bahrom va Dilorom” dostoni, “Navobaxsh hikmatlar”, “Xalq kitoblari va mumtoz adabiyot”, “Fors-tojik shoirlari ijodida komil inson talqini”, “Ko‘ngil hayratlari”, va Turkiyaning “Akademik kitablar” nashriyotida nashr etilgan “Hikmetlerde dünyaca manâ”, “Alisher Navoiy va uning salaflari ijodida komil inson talqini”, “Xamsa”larning birinchi dostonlarida komil inson tasviri”, Germaniyaning “Lambert” nashriyotida nashr etilgan “Perfect human concepts in the first novels of the “Hamsa”, “Alisher Navoi’s epic “Sab’ai sayyar” tradition and originality” kabi monografiyalari adabiyotshunoslik, n.shunoslik ilmi rivojiga katta hissa bo‘lib qo‘shilgan. Chunonchi, olimning Istiqlol yillarida yaratgan ilmiy tadqiqotlari N. asarlarini milliy tafakkur, Islom va tasavvuf nazariyasiga ko‘ra talqin etilib, asosli ilmiy xulosalar chiqarilgani b-n ajralib turadi.

M.M.Q. “Temuriylar davrida yaratilgan “Xamsa”larning komparativistik tadqiqi” (2017-2020) mavzusidagi grantga rahbarlik qilgan.

Ad.: *https://www.samdu.uz/cy/news/47879; arnews.uz/post/bugun-tugilgan-kun-muhiddinov-muslihiddin-qutbiddinovich*

S.O‘.

MUHITDINOV Qutbiddin (1906–1983, Samarqand) – f.f.n. 1971-y. “Sangloh” tarkibidagi “Maboni-ul-lug‘at” asari bo‘yicha” nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan.

Olim asarni tarjima qilgan, unga izohlar bergan. M.Q. to‘rt jildlik “Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati” (1983–1985)ni tuzishda ishtirok etgan. So‘z ma’nolarini izohlashda Sharq olimlari tomonidan tuzilgan lug‘atlardan foydalangan. Arab va fors tillarini mukammal bilgan.

Ad.: *“Санглоҳ”. – Мирзо Мухаммеда Мехдихона. Автореф. Дисс. канд. филолог. наук. – Т., 1971.*

E.U.

MUHIT – Yer yuzidagi quruqlikni o‘rab turuvchi suvlik. Hozirgi zamon ilmiy tilida “dunyo okeani” (мировой океан) deb ataladi. N. asarlarida tilga olingan, xususan, “S.I.” dostonida M.ga maxsus bob (yetmish uchinchi) bag‘ishlangan. Unda Iskandarning hakimlardan suvlik haqida so‘ragani va Suqrot unga javob bergani hikoya qilinadi. N.ning fikricha, M. yetti bahrga bo‘linadi va ular quyidagilardir: Rum va Farang bahri, Mag‘rib bahri, Zang-u Habash bahri, Hind bahri, Chin bahri, Duvong suvi, Mashriq suyi. Bu sanab o‘tilganlarga qo‘shilmaydigan yana bir bahr ham mavjud bo‘lib, u Hazar bahridir. Bobda ushbu bahrlardagi orollar haqida ham so‘z yuritilgan, ularning sonlari keltirilgan. M-n, Rum-u Farang bahrida olti yuz jazoyir, ya’ni orollar borligi aytiladi. Mag‘rib bahrida orollar soni mingta, Zang-u Habash bahrida bir ming uch yuz, Hind bahrida uch yuz ikki ming, Chin bahrida uch ming yetti yuz, Duvang suvida ikki mingga yaqin, Mashriq suyida o‘n ikki ming deb qayd qilingan.

M. haqida N. “S.I.” ning oltmish to‘rtinchi bobida ham to‘xtalib o‘tgan. Bunda u M.ga nisbatan “Bahri a’zam” atamasini ham qo‘llaydi:

Muhitekim ul, Bahri A’zam durur,
Aning javfida barcha olamdurur.

Bobda Iskandarning M. markazigacha yetib borishni orzu qilgani va bu haqda hakimlar bilan kengashgani bayon etiladi. M. markazini N. shunday ta’riflaydi:

Muhiteg‘a markazki beishtiboh,
Erur Bahri a’zamg‘a ul nuktagoh.

Iskandarning buyrug‘i b-n to‘rt yilga yetadigan kerak-yaroqlarni jamlaydilar. Shundan so‘ng u o‘z odamlarining bir qismini ikki mingta kemaga solib, vataniga qaytarib yuboradi. Boshqa bir qismini yetti yuzta kema b-n bir manzilda qoldiradi va shu yerda uni kutib turishlarini buyuradi. O‘zi esa uch yuzta kemadagi odamlari va dengiz safari u-n kerak bo‘lgan narsalar b-n M. o‘rtasini qidirib suzib ketadi. Bobda M. manzarasi, unda yashovchi jonivorlar, kemada suzib borishdagi mashaqqatlar va xavf-xatarlar mahorat b-n tasvirlangan. Shu tariqa bir yil-u to‘qqiz oyda ular M. markaziga yetib boradilar:

Bu yanglig‘ o‘tub bir yilu to‘qqiz oy,
Ki, markazga bo‘ldi qazo rahnamoy.

Bu yerda Iskandar butun suv osti olamini hech bir to‘siqsiz ko‘rishga muyassar bo‘ladi, zero u, N.ning yozishicha, chekkan riyozatlari evaziga valoyat qurbini topgan edi. “S.I.”dagi M. b-n bog‘liq o‘rinlar N.ning geografik tasavvurlarini o‘zida aks ettirishi b-n ham ahamiyatlidir.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 2002; Ўзбек адабиёти тарихи. 5 томлик, 2-том. – Т., 1977.*

Q.E.

“MUHOKAMAT UL-LUG‘ATAYN” – N.ning tilshunoslikka oid asari. U turkiy tilda sermahsul, barakali ijod qilgani haqida ko‘plab asarlarida, jumladan, “L.T.” dostonida faxrlanib shunday yozadi:

Chun toptim ul kalom ichra kamol,
Turk alfozi bila surdim maqol.

Shoirning mahoratini qarangki, baytda kalom, alfoz, maqol kabi atamalarni “so‘z”, “nutq”, “hikmat”, “til”, “mahorat” singari ma’nolarda o‘ta noziklik b-n qo‘llagan. Til tarixidan ma’lumki, N. turkiy tilning ayrim o‘ziga xos qonuniyatlari b-n qiziqib, “M.L.”, “S.A.” nomli asarlar yozib, qimmatli fikrlarni bayon qilgan. N. tilning qadimiy ekanligini “M.L.” asarida ta’kidlab, dunyo tillarini uch xil tasnifga ajratadi va turkiy, forsiy, hindiy “asl tillarning boshlanishidir” degan ilmiy, nazariy fikrlari barobarida turk va fors tillarini qiyoslab, ayrim hollarda ona tilimizning boyligini, nafisligini, yasovchilarning ma’no bo‘yoqdorligini 100 ta so‘z misolida izohlab, sharhlab beradi. “M.L.” asarida yozib qoldirgan e’tiborli fikrlaridan yana biri shuki, turkiy tilning cheksiz imkoniyatlarini tushuntirib, “O‘z tillari bilan ko‘prak aytsalar erdi, chunki hammasi o‘z millati uchun aziz, ulug‘vordir” degan umumbashariy xarakterdagi niyatini yozib qoldirdi. Bu kabi niyatlariga hamohang holda “Tilga e’tiborsiz – elga e’tiborsiz” hikmatida N. til millatning, elning qalbi, demak, ona tiliga, xalq tiliga e’tiborsizlik, qaysidir ma’noda o‘z xalqini bilmaslik, xalqning urf odatini, ruhiyatini, qalbini yaxshi anglamaslik, hurmatsizlik degan hayotiy haqiqatni ko‘rsatib berishga intilgan. Shu b-n birga N. fors hamda arab tillarini ham hurmat qildi, ulardan ijodida ustalik b-n foydalandi. Hatto, ba’zi asarlarida, xususan, “X.”da So‘z va undagi ma’nolar to‘g‘risida maxsus bob va fasllar yozib qoldirdi. Shoir insonni ulug‘lar ekan, uning boshqa mavjudotlardan imtiyozi so‘z-u nutqida ekanligini ta’kidlaydi. Insondan bo‘lak mavjudot so‘zlashish imkoniyatiga ega emas, ammo tildan nojoiz foydalansa, hayvondan battar, deb shunday misralarni mohirlik bilan yaratadi:

Tengriki, insonni qilib ganji roz,
So‘z bila hayvondin anga imtiyoz.

N. – turkiy tilning qudratli manzilgohlaridan biridir, degan xulosalarimiz asosida N. o‘zining asarlarida yozib qoldirgan so‘z va til haqidagi hikmatlaridan ayrimlarini keltirish mumkin:

“Tiling birla ko‘nglingni bir tut”.

“Chin so‘z – mo‘tabar, yaxshi so‘z – muxtasar”.

“Befoyda so‘zni ko‘p aytma va foydalig‘ so‘zni eshiturdin qaytma”. “Ko‘ngil maxzanining qulfi til va ul maxzanning kalidin so‘z bil”.

“Oqil chin so‘zdin o‘zgani demas, Ammo barcha chinni ham demak, oqil ishi emas.”

Ad.: *Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. ТАТ. 10 жилдлик, 10жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лисон уттайр. (Насрий баёни билан) Сўзбоши муаллифи, изоҳ ва луғатлар тузувчиси. Раҳмонов В. – Т., 1991.*

B.R.

“MUHOKAMAT UL-LUG‘ATAYN”DA QAYD QILINGAN UNLILAR – N. “M.L.”-da o‘zbek tilini fors tili bilan tilshunoslikning har uch sathi – fonetika, leksika va morfologiya bo‘yicha qiyoslar ekan, mumtoz o‘zbek tilidagi unlilar haqida muhim ma’lumotlar beradi:

1. **A** unlisi haqida.

Asarda ikkita *a* unlisi haqida ma’lumot beradi. Shoir yozadi: “Ul jumladin biri, alif bila ho orasida munosabat va mushorakat beribdurlarki, bir lafzni ham oxiri alif, lafz birla qofiya qilsa bo‘lur. Andoqki ارا ara “bezash” lafzin ارس sara “saroy” va ارد dara “kel” bila qofiya qilsa bo‘lur”, مرس - sara “toza” va مرد vodiy bila ham qofiya qilsa bo‘lur”.

Ushbu iqtibosda o‘zbek tilida ikkita *a* unlisi haqida ma’lumot bor, biri ا alif b-n ifodalangan oddiy *a*, ikkinchisi ه hoyi havvaz b-n ifodalangan qisqa *a*. Ushbu iqtiboslarda tilshunoslik, ayniqsa, fonetika u-n muhim ma’lumot bor. Bu yerda *alif* va *hoyi havvaz* bir-biriga variant ekanligi ko‘rsatilgan. Shoir alif o‘rnida hoyi havvaz va aksincha *hoyi havvaz* o‘rnida *alif* ishlatilishi mumkinligini ko‘rsatmoqda. N. quyidagi misolda ham ikkita *a* haqida ma’lumot beradi: “Andoqki ادی yada lafzin ادص sada “ovoz” va مداب boda vino” bila ham qofiya qilsa bo‘lur”. Bu misolda ovoz ma’nosidagi ادص sada so‘zida oddiy *a*, مداب boda so‘zida qisqa *a* unlisi ishlatilgan. Ko‘rinib turibdiki, N. bundan qariyb olti yuz yil ilgari fonema b-n tovushning farqiga borgan. Fonema ma’no ajratish xususiyatiga ega bo‘lsa, tovush bunday xususiyatdan mahrum.

Agar bu ma’lumotlarga shoir asarlarida uchraydigan maddali alif - آ b-n ifodalangan cho‘ziq *a*: ni qo‘shsak, XV asrda uchta *a* mavjud bo‘lganligi ma’lum bo‘ladi: 1. cho‘ziq *a*:; 2. oddiy *a*; 3. qisqa *a*. Ulardan faqat oddiy *a* fonema, qolgan ikkitasi cho‘ziq *a*: va qisqa *a* fonema variantlari hisoblanadi.

2. **U** unlisi haqida

Lablangan *u* unlisi haqida shoir shunday yozadi: “Va vov bila zamma orasida ham ul nav’ shirkatdur. Andoqki, روری erur lafzin رح hur “ozod”, رد dur “marvarid” lafzi bila qofiya qilsa bo‘lur, ورورغ g‘urur “maqtanish” va رورض zarur “kerakli” lafzi bila ham joyizdir”.

Ushbu iqtibosda oddiy *u* vov, qisqa *u* zamma orqali ko‘rsatilgan. Ushbu misollar ham vov va zamma bir-biriga variant ekanligini ko‘rsatmoqda. Sababi vov o‘rnida zamma va aksincha zamma o‘rnida vov ishlatish mumkin.

3. **I** unlisi haqida

N. “M.L.”da oddiy *i* ni yoy (ی), qisqa *i* ni (ِ) kasra orqali ko‘rsatgan. Shoir yozadi: “Va yo bila kasra orasida dag‘i bu nav’dur, andoqki, آغیر “ag‘ir” va باغیر bag‘ir “jigar” alfozin صادر . sadir “bajarildi” va قادر qadir “imkon” alfozi bila qofiya qilsa bo‘lur, تعبیر ta’bir “oldindan bashorat qilmoq” va تا خیر ta’xir “kechikish” alfozi bila ham bo‘lurki, forsiy alfozda bu suhulatlar yo‘qtur”.

Ushbu iqtibos bizga yoy va kasra bir-biriga variant ekanligini ko‘rsatmoqda.

4. **E**, **i**: unlilari haqida

“M.L.”da bu unlilar quyidagi iqtibosda ko‘rsatilgan: “ بیز ki sart g‘udud der va بیز ki mo va nahnu ma’nosi biladur va بیز ki darafsh derlar”. Ushbu misollardagi so‘zlarni hozirgi o‘zbek adabiy tili va shevalari b-n qiyoslash shuni ko‘rsatadiki, birinchi so‘z bezda *e*, ikkinchisi bizda oddiy *i*, uchinchi bi:z (bigiz)da cho‘ziq *i*: ishlatilgan.

5. **O‘** unlisi haqida

N. “M.L.”da bir-biridan uzun-qisqalikda farqlanuvchi to‘rtta *o‘* fonemasi haqida shunday yozadi: “ تور ki, domdur, yana تور ki andin daqiqroqdur: qush o‘lturur yig‘ochdur va تور to‘rki uyning to‘ridur va تور ki, barchadin ariqdur: to‘rlug‘ni yo eshikni to‘rmak uydur”.

Ushbu misolda birinchi *to‘:r*da cho‘ziq *o‘*:, ikkinchi *to‘:r*da birinchidan qisqaroq cho‘ziq *o‘*:, uchinchi to‘rda ikkinchisiga nisbatan qisqa *o‘*:, to‘rtinchi to‘rda hammasidan qisqa *o‘* ishlatilganligi haqida ma’lumot berilgan. Ushbu misol N. Yevropa tilshunoslaridan olti yuz yil ilgari fonemaning ma’no ajratish xususiyatini yaxshi bilganligini ko‘rsatadi.

Agar yuqoridagi ma’lumotlarni jamlasak, “M.L.”da quyidagi unlilar mavjudligi qayd qilinganligi ma’lum bo‘ladi:

Maddali alif b-n ifodalangan cho‘ziq *a*;
Alif b-n ko‘rsatilgan oddiy *a*;
Hoi havvaz b-n ko‘rsatilgan qisqa *a*;
Vov bilan ko‘rsatilgan oddiy *u*;
Zamma bilan ko‘rsatilgan qisqa *u*;
Yoy b-n ko‘rsatilgan cho‘ziq *i*;
Yoy b-n ko‘rsatilgan oddiy *i*;
Kasra b-n ko‘rsatilgan qisqa *i*;
Yoy bilan ko‘rsatilgan *e*;
Birinchi darajali cho‘ziq *o‘*;
Ikkinchi darajali cho‘ziq *o‘*;
Uchinchi darajali cho‘ziq *o‘*;
Oddiy *o‘*.

Bu misollar bizga uch xil ma’lumot:

1) N.ning eshitish qobiliyati nihoyatda kuchli bo‘lganligini;

2) fonetika mutaxassisi sifatida ma’no ajratish xususiyatiga ega bo‘lgan fonema b-n bu xususiyatdan mahrum bo‘lgan tovushni farqlaganligini;

3) mumtoz o‘zbek tilida unlilar bir-biridan uzun-qisqalik b-n farqlanganligini qo‘rsatadi.

Turkiy so‘zlardagi uzun-qisqalik N.ga aruzda erkin ijod qilishga keng imkon bergan. Shuning uchun ham u o‘zbek tilida “ko‘p va xo‘p” yozgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. ТАТ. 10 жилдлик, 10 жилд. – Т., 2011.*

E.U.

“MUHOKAMAT UL-LUG‘ATAYN” NASHRLARI – N. asarlari ichida eng ko‘p tarjima qilinib, nashr etilgani “M.L.”dir. Ushbu risola birinchi marta 1841-y. Parijda fransuz sharqshunosi E. Katrmer tomonidan “Shrestomathies Orientals, Extraits d’Ali-Schir” kitobida nashr qilingan. Ushbu asar ikkinchi marta Parijda 1845-y. “Chrestomathic en Turk oriental” majmuasi tarkibida ham chop etilgan. 1862-y. venger olimi A.Vamberi “Muhokamet-ul-Lugetejn” Mir Ali-Şir” nomi bilan mojor tiliga o‘girgan. 1894-y. turk tiliga Valad Chalabiy tomonidan tarjima etilib, Istanbulda chop qilindi. 1902-y. Bog‘chasaroy (Qirim)da Ismoil G‘aspirali so‘zboshi b-n ozar tilida nashr etildi. Eron olimi Turkxon Ganjayi 1327/1909-y. da Tehronda fors tiliga ag‘dardi. Turkmanistonlik Abdulhakim Gulmuhamedov 1925-y. Ashxobodda turkman tiliga o‘girdi. Ushbu asarni 1941-y. Anqarada lotin alifbosida Rif’at Ishitmon chop etdi. Oybek va Shamsiyev “M.N.” va “M.L.”ni 1947-y. Toshkentda bir muqova ichida chop etdilar. Asar 1966-y. ingliz tiliga R.Dverix tomonidan tarjima qilinib, Aleyden (Gollandiya)da nashr qilindi. Nashrda olim matnni avval arab yozuvida, so‘ngra fors va ozor tiliga o‘girilgan tarjimalarini ham bergan. Ingliz olimi matnga asos qilib, Turkiyaning To‘pqopi saroyidagi qo‘lyozmani olgan.

Asar 1968-y. Anqarada Ogoh Sirri Lavend tomonidan tayyorlangan to‘rt jildlikning to‘rtinchi jildida (189-217-betlar) bosilgan. Asar A.N. Malexova tomonidan tarjima qilinib, 1970-y. Toshkentda rus tilida chop etildi.

Arg‘un Tuxmanoy 1984-y. Peshovarda asarning fors tilidagi tarjimasini chop etdi. Asarning uyg‘ur tiliga tarjimasi 1988-y. Urumchida nashr qilindi. Nashrga tayyorlovchi H.Temur va A. Po‘ladning yozishicha, “ushbu tarjima asarning hijriy 1315-y.da Turkiyaning Iqdom matbaasida bosilgan nusxa asosida tayyorlandi”. 1996-y. Fotima Sema Barutchi ushbu risolani Anqarada chop etdi. U asar matnini tayyorlashda to‘rt qo‘lyozmaga suyangan. 2008-y. Eron olimi Husayn

Tizgin (Husayn Muhammadzoda Siddiq) muqaddima, ko‘rsatkich va izohlar b-n ozar tiliga tarjima qildi. Nashrga Istanbuldagi To‘pqopi saroy kutubxonasidagi qo‘lyozma fotonusxasi ilova qilingan.

E.U.

“MUHOKAMAT UL-LUG‘ATAYN”-NING TABRIZ NASHRI – N. asarlari ichida eng ko‘p nashr qilingani – “M.L.”. Sababi, bu asarda o‘zbek tilining boy va go‘zal til ekanligi ko‘rsatib berilgan. Shoirning maqsadi fors tilini kamsitish emas, aksincha bu tilda ijod qilayotgan turk zurafo – turkiy nozikfahmlar diqqatini o‘z ona tili boyligiga qaratish edi. N. o‘zbek va fors tillarini tilshunoslikning har uchala sathi – fonetika, leksika va morfologiya sohasida muqoyasa qilib, o‘zbek tilining boy va rang-barang ekanligini ko‘rsatib berdi. O‘zbek shoirlarining bu tilda ijod qilishga undadi. Bundan besh yuz avval muqoyasa usulida yozilgan ushbu asar dunyo tilshunoslarini qiziqtirib kelgani u-n u bir necha marta chop qilingan.

Hozircha asarning oxirgi nashri eronlik Husayn Muhammadzoda Siddiq tomonidan 2008-y. da Tabrizda amalga oshirilgan. Ushbu nashrning Bog‘chasaroy (Qrim), Peshovor, Istanbul, Ashxobod, Urumchi, Leyden nashrlaridan farqi shundaki, olim avvalgi nashrlarning yutuq va kamchiliklarini hisobga olgan. Eng muhimi, eronlik olim o‘z tadqiqotida “M.L.”ning hijriy 901, melodiy 1496-y. mashhur kotib Darvesh Muhammad Toqiy tomonidan kitobat qilingan, hozirda Istanbulda To‘pqopi saroyi Ravon kutubxonasidagi 808 raqamli shoir kulliyoti tarkibidagi qo‘lyozmaga asoslangan. Ayrim n.shunoslarning taxminicha, ushbu kulliyot o‘z vaqtida shoir kutubxonasida saqlangan. Husayn Muhammadzoda Siddiq tayyorlagan kitob besh qismdan iborat.

Birinchi qismda (11-49-betlar) olim N.ning hayoti va ijodi, uning asarlari haqida batafsil ma’lumot beradi. Ikkinchi qismda (52-95-betlar) asarning Turxon Ganjaviy tomonidan fors tiliga qilingan tarjimasi keltirilgan. Uchinchi qismda (98-141-betlar) “M.L.”ning olim tomonidan ozar tiliga qilingan tarjimasi joy olgan. To‘rtinchi qismda (144-158-betlar) “M.L.”ning To‘pqopi saroyida saqlanayotgan qo‘lyozmasining fotonusxasi keltirilgan. Beshinchi qismda (160-188-betlar) mumtoz o‘zbek tilida yozilgan ushbu asar lotin harflarida berilgan.

Bulardan tashqari kitobda bir necha ilovalar mavjud. Ularda asarda uchrovchi arabiy so‘z va iboralar, turkiy she’rlar matla’si, forsiy ash’orlar, ism va geografik ko‘rsatkichlar, asar nomlari, turkiy so‘zlar arab va lotin haflarida berilgan. Kitob oxirida bibliografiya keltirilgan.

Ushbu nashrning ahamiyatli tomonlaridan yana biri shundaki, olim N. “M.L.”da nima haqida fikr yuritsa, ularni mavzu guruhlariga bo‘lgan. M-n, gap qushlar haqida borganda qavs ichida (qush), otlar haqida bo‘lsa, (ot nomlari) kabi sarlavhalar qo‘ygan. Bu o‘quvchilarga o‘zi qiziqtirgan masalani osonlik b-n topishga yordam beradi.

Kitobning “Tajnis va iyhom”, “Qofiya suhuliyatlari” bo‘limlarida mumtoz o‘zbek tilida uzun-qisqalikda farqlanuvchi to‘rtta *o‘* tufayli o‘t, to‘r so‘zlari to‘rt qatorga joylashtirilgan. Bag‘irda yoy orqali oddiy *i*, qodirda kasra orqali qisqa *i*, erurda vov bilan oddiy *u*, dur (inju) da zamma b-n qisqa *u* ishlatilganligi ko‘rsatilgan. Ushbu nashrning ahamiyatli tomonlaridan biri kitob oxirida beshta ilova berilgan: 1. Arabiy iboralar ro‘yxati; 2. Turkiy she’rlar fihristi; 3. Forsiy she’rlar fihristi; 4. Asarda uchraydigan joy va kishi ismlari; 5. Shoir qalamga olgan 369 ta turkiy so‘z arab va lotin harflarida berilgan.

Hamma ilmiy talablarga javob beradigan ushbu nashr nafaqat n.shunoslarga, balki keng o‘quvchilar ommasiga manzur bo‘lishi shubhasiz.

Ad.: *Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

E.U.

MUHR – o‘zidagi qabariq yoki botiq belgilaridan nusxa tushiruvchi maxsus asbob. O‘tmishda M. sopol, mis, po‘lot, kumush va oltindan qilingan. M.ning shakli to‘rtburchak, doira, bodoma ko‘rinishlarida bo‘lgan. Qadimda har bir nufuzli kishilar: xon, amir, bek, mufti, qozi va boshqalarning o‘z shaxsiy M. bo‘lgan. Jumladan, “Navoiy dasxati (“Navodir un-nihoya”)”ni nashrga tayyorlagan, so‘zboshi muallifi n.shunos S.G‘aniyeva N.ning shaxsiy M. va M.ga bitilgan jumlalar haqida quyidagicha ma’lumot beradi: “Kun, osha fi-d dunyo k-al g‘arib-al-faqir Alisher”, ya’ni, Dunyoda faqir va g‘arib Alisherdek hayot kechir. M. yuzasiga egasining ismi, lavozimi, M. yasalgan joyning nomi hamda sanasi bitilgan. N. “S.I.” dostonida odam M.ga nimani o‘ysa, M. bosilgach, qog‘ozga shu tushadi, degan hayotiy voqeaga hamohang falsafiy tus berib, shunday tasvirlagan:

Kishi muhr aro har ne qildi nigor,
Varaqta hamul naqsh o‘lur oshkor.

Davlatning har qanday rasmiy farmon, yorliq va hujjatlari M. bosib, tasdiqlangandan keyin qonuniy kuchga kirgan. M-n, M. turlari, ayniqsa, “Rosti-yu rusti” degan so‘zlar naqshlangan Shoh Sulaymon M., Amir Temur va temuriylar M. b-n bog‘liq qiziqarli ma’lumotlar N. asarlari matnida badiiy shaklda uchraydi. M-n, “H.A.”da:

Hotami adling‘a sipehri baland,
“Rosti-yu rusti” bilan naqshband.

Yoki: Shoh Iskandar yasattirgan muhrni uning ixtirolaridan biri sifatida shunday poetik tasvirlar ijod qilgan:

Tuz aylab tarozu ila boshini,
Temurdin yasab, muhr etib toshini.

N. “M.”da tartib bergan maktublaridan 25-maktubda M., 49-maktubda M. ixfo (mahkamlash muhri) bo‘lib, maktublarga birov yo‘lda ochmasligi u-n M. ixfo bosilgan, ammo N. M. ixfoni ko‘chma ma’noda, ya’ni sirni saqlash, tilga, og‘izga mahkam bo‘lish ma’nolarida ham ustalik bilan qo‘llagan), 57-maktubda esa chorsu M. va hujjatlarga kechiktirmay M. bosish haqida ham ma’lumotlar, izohlar yozib qoldirgan. Badiuzzamon mirzoga yozgan 57-maktubda quyidagi fikrlarini o‘qiymiz: “Yana ulkim, beklarga va devonlarg‘a basa parvonachi va muhrdor va munshig‘a hukm bo‘lsakim, musulmonlarning nishonni ortuq tama birla kechga qo‘ymasalar. Sha’riy va qavliy nishonni bir chorsu muhri bila hukm bo‘lg‘on kun – o‘q butkarib bersalar. Kulliyrak nishonlarni dag‘i qila olg‘ancha hukmdin qo‘rqub, botroq butkarsalar”.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011. Алишер Навоий. Муншаот. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ҳакимов М. Шарқ манбашунослиги луғати. – Т., 2013.*

B.R.

MUHRDOR – Temuriylar davrida saroy amaldori. Shoh muhrini saqlash va muhim hujjatlarga bosish uning vakolatiga kirgan. N. o‘zining davlat arbobi sifatidagi faoliyatini Sulton Husayn Boyqaro saroyida M.likdan boshlagan. Buning ta’rixi “Alisher muhr zad”dir. Lekin uning bu mansabdagi faoliyati ko‘p davom etmagan. 1472-y.da bek (amir) rutbasini olishi munosabati b-n u M.likni topshirgan va o‘z o‘rniga Shayx Axmad Suhayliyni tavsiya qilgan. N.ning akasi Shayx Bahlulbek ham ma’lum bir muddat M. bo‘lgan. 1480-y.da bu vazifaga ukasi Darvish Ali tayinlangan. Yuqorida aytilganidek, N.ning M.ligi ko‘p davom etmagani u-n bu sohadagi faoliyati haqida ma’lumotlar yo‘q. Manbalarda faqat uning muhrdor etib tayinlangani aytiladi, xolos. N. ijodida esa shoir hayotidagi bu davr haqida birgina qit’ada so‘z yuritilgan:

Chun men lutf etti shah devonda muhr,
Bu edi eldin quyi muhr urmog‘im.

Kim g‘ururi nafsi sarkash man’ig‘a,
Barchadin bo‘lg‘ay quyi o‘lturmog‘im.

Chun shikasti nafs hosil bo‘lmadi,
Mundin o‘ldi muhrni sindurmog‘im.

M. bo‘lib ishlar ekan, N. oqil siyosatchi, odil amaldor, uzoqni ko‘ra oladigan davlat arbobi, jasur sarkarda va mohir diplomat sifatidagi iste’dodining yangi qirralarini namoyon etadi.

Husayn Boyqaro N.ni M.lik mansabiga tayinlaganida egallab turgan lavozimiga ko‘ra, u eng yuqoriga muhr bosishga haqli edi. Lekin M. bir-biridan yuqoriga muhr bosishni talashadigan amir-amaldorlarga qarshi o‘laroq, eng quyiga o‘z muhrini bosar ediki, undan pastga hech kim muhr bosolmasdi.

Hamma uning kamtarligiga qoyil qoldi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2011; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985.*

Q.E., B.R.

MUHRI NUBUVVAT – Muhammad (s.a.v.) ning yelkasida bo‘lgan va payg‘ambarlik dalili hisoblangan belgi, muhr. N. “S.I.” dostonida bu muhrga maxsus to‘xtaladi va shunday ta’riflaydi:

Sening tug‘mog‘ing ravshan aylab jahon
Aningdekki, tuqqay quyosh nogahon.

Bu ishtin falak topqach ogohliq,
Sanga shahlar uzra berib shohliq.
Falakka bu baxshish qilurg‘a ne had,
Seni Haq shah etmish azal to abad.

Guvoh o‘ldi toji futuvvat munga,
Dalil o‘ldi muhri nubuvvat munga.
Bu muhreki naqshin tutub ul kitif,
Quyosh ichradur axtari munxasif.

Ne axtarki, bir xotam etmish nishon,
Yadulloh aro xotam o‘lg‘on nihon.

Manbalarda zikr qilinishicha, Muhammad (s.a.v.) vafotidan sal oldin tong namozidan so‘ng sahobalarga murojaat qilib, “Ey mo‘minlar! Biror kishining menga nisbatan da’vosi yoki xusumati bormi? – degan. Hech kimdan sado chiqmagan. Uchinchi marta so‘raganida Ukosha ismli sahoba “Mening da’voyim bor”, deb o‘rnidan turgani va Payg‘ambar (s.a.v.) bir kuni tuya minib ketayotganda tuyani urmoqchi bo‘lib, qamchi siltagani, lekin qamchi uning orqasiga tekkanini aytadi. Shunda Payg‘ambar (s.a.v.) o‘zining hujrasiga kirib, qamchi olib chiqadi va Ukoshaga berib, “qasosingni ol”, – deydi. Ukosha “men o‘sha kun yalang‘och edim, sizning to‘ningiz bor”, deya Payg‘ambar (s.a.v.)ning yechinishini so‘ragan. U kishi to‘nlarini yechib, yelkasini ochganda, Ukosha: “Yo Rasulullo, mening maqsadim qasos emas, yelkangizdagi nubuvvat muhrini ko‘rish edi”, – deya muhrni o‘pishga ruxsat so‘ragan va qasosidan kechganini aytgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд, – Т., 2011; Рабғузий. Қисаси Рабғузий. – Т., 1991.*

Q.E.

MUHSINIY (taxallusi; asl ismi Husaynquli Sulaymonquli o‘g‘li) (1860–1917, Qo‘qon) – shoir, tarjimon, xattot. Mahalla maktabida savod chiqarib, Sultonmurodbek madrasasida tahsil oladi. Bu yerda Abdulmo‘min Shahrixoniydan arab tili sarf-u nahvi va diniy ilmlarni o‘rganadi. Ayni paytda, Xo‘ja Hofiz va N. merosini ixlos va muhabbat b-n mutolaa qilib, ular ta’sirida o‘zi ham she’rlar mashq qila boshlaydi. Salaflari qatorida Muqimiy, Furqat, Zoriy, Nisbatiy kabi zamondosh shoirlar ijodidan ham bahramand bo‘ladi.

M. o‘z she’rlari asosida 1897, 1914, 1917-yy. 3 marta devon tuzgan. Devonining so‘nggi nusxasi eng mukammali bo‘lib, 7378 misra hajmidagi Sharq mumtoz she’riyatining g‘azal, musta-

zod, muxammas, musaddas, musamman, tarje’-band, qasida, ruboiy kabi janrlardagi she’rlarni o‘z ichiga oladi. U O‘zR FA ShI.da 7293-inv. raqami b-n saqlanadi.

M. 1914–1916-yy.da “Riyoz ul-anom fi musobih uz-zalom” nomli falsafiy-didaktik asar ham yozgan. Muallifning o‘z dastxati b-n ko‘chirilgan xattotlik san’atining go‘zal namunasi bo‘lgan mazkur asar qo‘lyozmasi Qo‘qon adabiyot muzeyida saqlanadi. Xattot sifatida u N.ning “L.M.” dostonini ham chiroyli nasta’liq xatida ko‘chirgan. Oxund Yusuf Qorabog‘iyning “Hasht bihisht” (“Sakkiz jannat”) nomli falsafiy-axloqiy, Hakimxon To‘raning “Muntaxab ut-tavorix” (“Saylanma tarix”) tarixiy asarlarini fors tilidan tarjima qilib, ularni ham o‘zi ko‘chirgan.

M. turkiy ijodida, asosan, N. va Fuzuliyga ergashib, an’anaviy ishq-u muhabbat, pand-nasihat, charx-u falakdan, zamondan, odamlardan shikoyat mavzularida qalam tebratgan. Fuzuliy ta’sirida ozariy lahjada qator g‘azallar yozgan, *anjaq, veran, cho‘x, olan* kabi ozarcha so‘zlarni she’rlarida ko‘p qo‘llagan.

Shoir she’rlarida mavjud hayot manzaralari tasviri ham ko‘zga tashlanadi, zamon aks sadolari ham eshitiladi. Lekin uning ijodiga N.ning ta’siri katta. Bu ta’sir izlarini biz uning ulug‘ salafi g‘azallariga qilgan tatabbu’larida va turli she’rlaridagi fikr-u tashbeh-u timsollar mushtarakligi va hamohangligida ko‘ramiz. Jumladan, na’t xarakteridagi:

Ham avval-u oxir o‘zing, ham botinu
zohir o‘zing,
Yo‘v avvalingda ibtido, ham oxiringga
intiho, –

misralarida N.ning:

Azal ham sen, abad ham sen, sen avval
birla oxirkim,
Anga yo‘q ibtido paydo, munga yo‘q
intiho paydo, –

baytining aks sadosini ko‘rish mumkin.

U buyuk salafining “Oshiq”, “Kelmadi”, “O‘lturgusi”, “Yo‘q kishi” kabi qator g‘azallariga ham tatabbu’lar qilgan.

M. o‘ziga yuqori baho berib, “O‘z zamonimda erurman Anvariy” deb yozsa ham, u ko‘proq badihago‘y shoir. Do‘st-u tanishlariga bag‘ishlangan muvashshah g‘azallari ko‘p. Mav’iza she’r va baytlar ham M. ijodida katta o‘rin tutadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Муҳсиний. Барҳаёт гулшан. – Фарғона, 2008. Неъматов У. Серқирра ижодкор // Муҳсиний. Барҳаёт гулшан. – Фарғона, 2008.*

E.O.

MUHTASIB – O‘rta asr musulmon Sharq mamlakatlarida shariat qoidalarining bajarilishini nazorat qilib boruvchi amaldor. M. bozordagi tosh-tarozuning to‘g‘riligini ham tekshirib turgan. M. shariat qoidalarini buzgan kishilarni ta’qib etib, davlat ma’muriyati yordami b-n jazolatadi ham. N. ning lirik she’rlarida M. ko‘pincha qora niyatli, yovuz amaldor sifatida tasvirlanadi. U ishq ahlining, rindlarning xursandchilik qilishiga yo‘l qo‘ymaydi, ularning kayfiyatlarini buzadi, may solingan idishlarini sindiradi. N.ning lirik qahramoni ba’zan xursandchilikdan, ko‘pincha hayotdagi adolatsizlik, jaholatdan nolib, mumtoz adabiyotda erk, shodlik va ishq timsoli bo‘lgan mayga ehtiyoj sezadi. M. esa uning holini anglamay, ta’zirini berish - jazolashga harakat qiladi:

Navoiy andoq emish mastkim, xabar yo‘q anga,
Ki muhtasib ani ko‘y ichra aylamish ta’zir.

M. hatto “aybdor” odamlarga tan jazosi bergan, ularni yalang‘ochlab darra urgan.

M. N. she’rlarida kishilarga xursandchilikni ravo ko‘rmaydigan, dilozor, shaxs erkini bo‘g‘uvchi odamning umumlashtirilgan adabiy, majoziy obrazi sifatida gavdalanadi:

Sindi boshim kosasi, andoqki ko‘nglum shishasi, Muhtasibdek ishratim asbobini sindurdingiz.

Real hayotda N. M.larning o‘z ishini to‘g‘ri, halol olib borishlarini talab qilgan, shoir “V.”da yozadi: “Muhtasiblar xaftada ikki qatra bozor ahlining narxlaridan vuquf topsalar”.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Вақфия. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

Ab.H.

MO‘MIN MIRZO (t.y.n. – Hirot – 1497) – shahzoda, shoir. Sulton Husayn Boyqaroning nevarasi, to‘ng‘ich farzandi Badiuzzamonning o‘g‘li. Bolaligidan o‘tkir zehni, g‘oyatda zukkoligi va favqulodda qobiliyati b-n ajralib turgan bu shahzoda barchaning muhabbat-u hurmatini qozongan bo‘lib, N. ham uni juda ardoqlab, kelajagiga umid b-n qaragan.

1496-y. Astrobod hokimi bo‘lib turgan Badiuzzamonga Balx hukumati topshiriladi. U o‘z o‘rniga o‘g‘li M.M.ni qo‘yib, Balxga keladi. Badiuzzamon Sulton Husayn Astrobodni “Amir Temur ko‘ragon xonadonining tengi yo‘q” (Mirxond) gavhari bo‘lgan sevimli nabirasi M.M.ga beradi degan umidda edi. Shahzodaning sunnat to‘yida Astrobod unga va’da qilingan. Lekin Husayn Boyqaro suyukli xotini Xadichabegimning talabi b-n Astrobodni undan tug‘ilgan o‘g‘li Muzaffar Husayn Mirzoga berish haqida farmon chiqaradi. Chunki Astrobodga hokim bo‘lgan shahzoda ayni paytda valiahd ham hisoblanar edi. (Oqibatda Husayn Mirzo vafotidan so‘ng Hirot taxtiga ikki shahzoda Badiuzzamon Mirzo va Muzaffar Mirzo o‘tiradi). Bu qarordan norozi bo‘lgan Badiuzzamon Balxda otasiga qarshi isyon ko‘taradi. Husayn Boyqaro o‘g‘liga qarshi urushga otlanmoqchi bo‘lganida, N. o‘rtaga tushadi. Balxga borib, Badiuzzamon Mirzoni otasi b-n yarashishga va Astrobodni Muzaffar Mirzoga berishga ko‘ndiradi. Lekin N. qo‘li b-n sulh tuzilishi, ota-bolaning yarashishini istamagan Nizomulmulk, Xadichabegim va ularning atrofidagilar Badiuzzamon N.ning talabi b-n M.M.ni Astrobodga qo‘yib ketgan, deb Sultonni ishontiradilar. U Balx qal’asi boshlig‘i Islom barlosga Badiuzzamon ov maqsadida shahardan chiqqanda darvozalarni berkitib olish va uni ichkariga kiritmaslik to‘g‘risida farmon yuboradi. Ittifoqo, bu farmon Badiuzzamonning qo‘liga tushadi. Sulh barbod bo‘lib, N. ortiga umidsiz qaytadi.

Otasining Xadichabegimning so‘ziga kirib bunday qilayotganidan g‘azablangan Badiuzzamon unga “Astrobodga birovni yubormangki, baribir bermayman” degan mazmunda maktub yo‘llaydi va ayni paytda Muzaffar Mirzoni Astrobodga kiritmaslik haqida M.M.ga ham buyruq beradi. Natijada, Sulton Husayn Balxga yo‘l olib, jangda Badiuzzamonni yengadi, Muzaffar Mirzo Astrobodda M.M. ustidan g‘alaba qozonib, uni asirga oladi va Amir Muhammad Burunduq Barlos b-n Hirotga jo‘natadi. U shahzodani Ixtiyoriddin qal’asiga qamab qo‘yib, o‘zi Murg‘ob bo‘yidagi Sulton Husayn huzuriga yo‘l oladi va bo‘lgan voqeani aytib beradi. M.M.ning tirik qolishi o‘g‘lining kelajagi u-n xavf tug‘dirishi mumkinligidan tashvishga tushgan Xadichabegim Nizomulmulk b-n til biriktirgan holda Sultonning mastligidan foydalanib, M.M.ni qatl etish haqidagi farmonga qo‘l qo‘ydirib oladilar. Xadichabegim agar M.M. o‘ldirilsa, Badiuzzamon otasi b-n hech qachon yarashmaydi, natijada Husayn Boyqaro uni valiahdlikdan mahrum etib, o‘rniga Muzaffar Mirzoni tayinlaydi, degan maqsadda podshoh hushiga kelib o‘z fikridan qaytmasin deb, hukmni shoshilinch va xalq ko‘zidan yashirin yarim tunda amalga oshirishga muvaffaq bo‘ladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur ham M.M. ning o‘ldirilishi va Husayn Boyqaro o‘g‘illarining adovatiga Xadichabegimni sabab qilib ko‘rsatadi.

N. bu paytda Imom Rizo qabrini ziyorat qilish uchun Mashhadga ketgan edi. Shahzoda qatlidan

uch kun o‘tib, Hirotga qaytgan ulug‘ shoir bu fojiadan qattiq qayg‘uradi. Shu munosabat b-n Badiuzzamonga yozgan maktubida o‘zining ish bu darajaga borib yetmasligi u-n qo‘lidan kelgancha harakat qilgani, lekin taqdir hukmi oldida ojiz qolganini aytib, unga taskin beradi hamda sodir bo‘lgan voqealarni qismatdan, qolaversa, o‘z xatosidan bilib, buyog‘iga sabr etib, yaxshilikdan ko‘z tutish va ota rioyatini qilishini maslahat beradi. Chunki 12 yashar M.M. Sulton Husaynning o‘g‘illari va nevaralari ichida o‘zining tiyrak aqli va yorqin iste’dodi b-n ajralib turar hamda shoir sifatida ham tanilib ulgurgan edi. “M.N.”ni fors tiliga tarjima qilgan Faxriy Hirotiy ham Husayn Boyqaro avlodi orasida husni jamolda bunaqasi bo‘lmagan deb ma’lumot beradi va bu Xuroson ahli boshiga yopirilib kelayotgan balodan ishorat berishini ta’kidlaydi. Voqean, N. ham M.M. qatlini mashhur shayx va mutasavvif shoir Majdiddin Bag‘dodiyning tuhmat b-n Xorazmshoh tomonidan nohaq o‘ldirilishi voqeasiga o‘xshatadi. O‘shanda Xorazmshoh Najmiddin Kubroga shogirdining xunbahosi u-n bir lagan javohir yuborgan, lekin mashhur shayx uni ortiga qaytarib: “Majdiddinning xunbahosi sen bilan mening boshimiz bo‘ladi”, − degan edi. Chindan ham, ko‘p o‘tmay Chingizxon Xorazmning kulini ko‘kka sovuradi. Hirot ham xuddi shunday: avval shayboniylar, keyin safaviylar tomonidan talon-toroj qilinadi.

M.M. qatli munosabati b-n zamon shoirlari ko‘plab marsiyalar yozdilar. Ular orasida Gulxaniy Astrobodiyning quyidagi qit’asi shuhrat tutdi:

Bozori zulm boz rivoji digar yoft
Z-in kofire, ki mo‘mini dinro shahid kard.
On jo Yazid omadu kori Husayn kard,
In jo Husayn omadu kori Yazid kard.

Tarj.: Din mo‘minini shahid etgan bu kofir tufayli zulm bozori yana qaytadan rivoj topdi. U yoqda Yazid kelib Husaynning hayot shamini o‘chirgan edi, bu yoqda Husayn kelib Yazidning ishini qildi.

Bu yerda Sulton Husayn Boyqaro tomonidan o‘z nabirasining qatl qilinishi umaviylar xalifasi Yazid tomonidan Karbalo sahrosida Hazrat Alining o‘g‘li Muhammad (s.a.v.)ning nabirasi Husaynni shahid etgani voqeasiga qiyos qilinmoqda.

M.M.ning turli tarixiy asarlar va tazkiralar orqali yetib kelgan ayrim g‘azal va baytlari uning yorqin iste’dodidan dalolat beradi. Chunonchi, Faxriy Hirotiy “M.N.” tarjimasi ilovalarida uning daqiq ta’bining namunasi sifatida quyidagi baytini keltiradi:

Zi tab biso‘xt, tabibo, tani balokash man,
Birav, biravki, biso‘zi tu ham bar
otashi man.

Tarj.: Ey tabib, mening balolar yukini ko‘taruvchi tanim isitma o‘tida kuyib ketdi. Menga yaqinlashmaki, sen ham bu o‘tda kuyib ketishing mumkin.

Eron olimi, “M.N.” tarjimalari noshiri Ali Asg‘ar Hikmat matn osti havolasida M.M.ning qatl etilishi paytida badiha tarzida aytgan ikki baytini keltiradi:

Manam, k-az zarbi teg‘am besha
xoli az g‘azanfar shud,
Falak yori nakard, ey do‘ston,
dushman Muzaffar shud.

Tarj.: Men qilichi zarbidan o‘rmonda shernning urug‘ini quritgan yigit edim, lekin, ey do‘stlar, taqdir madad bermay, dushman g‘olib bo‘ldi.

Baytda “muzaffar” so‘zi ikki ma’noga ega bo‘lib, g‘olib hamda Muzaffar Mirzo ma’nolarini ifodalab kelyapti, ya’ni “dushman muzaffar (g‘olib) bo‘ldi...” va “dushman Muzaffar (Mirzo) bo‘ldi”. Bu ilmi bade’da ittifoq san’ati ham deyiladi.

Zayniddin Vosifiyning ma’lumot berishicha, bu bayt aslida M.M.ning Muzaffar Mirzo tomonidan qo‘lga olinganida aytilgan.

Navjavonmarde, ki bejurmam,
dar in sin mekushad,
Kofire sangindile gashtast,
ki mo‘min mekushad.

Tarj.: Meni gunohsiz va navqiron bir yoshda o‘ldirmoqda, kofirning dili tosh qaytib, mo‘minni o‘ldirmoqda.

Bu baytda “kofir” so‘zi istiora yo‘li b-n Muzaffar Mirzoni, “mo‘min” tajnis orqali M.M.ni bildirib kelmoqda. Ayni paytda, “kofir” va “mo‘min” so‘zlari o‘zaro tazod san’atini ham hosil qilgan.

Faxriy Hirotiyning “Ravzat us-salotin” tazkirasining temuriy ijodkorlarga bag‘ishlangan uchinchi bobida M.M. haqida alohida ma’lumot berilib, Jomiyning mashhur bir g‘azaliga bog‘lagan besh bandli muxammasi keltiriladi va uning o‘sha davrda mashhur ekanligi ta’kidlanadi.

O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov unga bag‘ishlab “Mo‘min Mirzo” (1971) she’rini yozgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик. 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Айний С. Алишер Навоий (А.Рустамов тарж.) // Танланган илмий асарлар. – Т., 1978; Мирхонд. “Равзат ус-сафо”дан // Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985; Хондамир. “Ҳабиб ус-сияр”дан // Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985; Соммирзо Сафавий. Тўҳфаи Сомий. – Теҳрон, 1347 (ҳ.-ш.); Ўзбек адабиёти тарихи. 5 жилдлик, 2-жилд. – Т., 1977; Султон И. Навоийнинг қалб дафтари. – Т., 1969; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 2002; Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий: манбаларнинг қиёсий-типологик текстологик таҳлили. – Т., 2011; Абдуқодиров А. Амир Алишер Навоий. – Хўжанд, 2013; Ғаниева С. Навоий насри нафосати. – Т., 2000; Орипов А. Танланган асарлар. 4 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2000; Асадов М. Соқийнома: тарих ва поэтика. – Т., 2020.*

E.O.

MO‘MINOV Ibrohim Mo‘minovich (1908, Buxoro – 1974, Toshkent) – faylasuf olim, jamoat arbobi, O‘zR FA akad, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, falsafa fanlari d-ri, prof., “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni sohibi. M.I.M.ning ilmiy tadqiqotlari markazida Sharq, xususan, Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy-falsafiy hamda ilmiy-tabiiy fikrlari muammolari turgani natijasida, u falsafaning o‘ta siyosiylashuvini, uni hukmron mafkura xizmatiga tamomila bo‘ysundirish xurujlarini chetlab o‘tish imkoniyatiga ega bo‘ldi. O‘zbekistonda falsafa maktabiga asos solgan M.I.M. Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, A.Jomiy, Ali Qushchi, N., Mashrab, Turdi, Donish, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Hamza, Ayniy kabi yirik qomusiy olim-u so‘z san’atkorlari ijodini tahlil qildi. Ayniqsa, Bedil to‘g‘risida sharqshunoslikda to‘plangan ma’lumotlarni jamladi va umumlashtirdi, uning ilmiy biografiyasini yaratdi, Bedil ijodiy merosini ilmiy tavsifladi.

M.I.M. temuriylar, xususan, N. adabiy merosiga ham adabiy-falsafiy nuqtayi nazardan baho berishga urindi. U “Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli” asari (1968) orqali, umuman, Amir Temur shaxsini ilmiy o‘rganish tashabbusi b-n chiqib, ilmiy jasorat va yuksak vatanparvarlik ko‘rsatdi. “Alisher Navoiy buyuk ma’rifatchi” maqolasida N. asarlarida ilgari surilgan umuminsoniy g‘oyalarni, yaxshilik, ezgulik, odamiylik to‘g‘risidagi o‘lmas satrlarni aniqlashga urinib, ahamiyatga molik xulosaviy fikrlarni bayon etadi. M-n: “Navoiy ilm egallashni insonning eng ajoyib fazilati deb hisoblab, dunyoviy ilmlarni tizimli o‘rganish va rivojlantirish, ularni hayotda amaliy qo‘llash zarurligini ta’kidlagan. U tibbiyot, falsafa, tarix, astronomiya, geografiya sohalarida ilg‘or g‘oyalarni ilgari surdi”. Zero, olim o‘rinli ta’kidlaganidek, “Navoiyning teran mazmunli ijodi insoniyat madaniyatining go‘zal durdonalaridan biridir”.

Ad.: *Мўминов И. "Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикр тараққиёти тарихи масалаларига доир (X-XX аср бошлари). – Т., 1954; Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. – Т., 1968. Алишер Навои – великий мыслитель-просветитель. В книге: Муминов И. Вопросы истории философии. Избранные произведения. Том 1. – Т., 1976.*

I.H., S.O'.

MO'JIZA – (ar. – aqlni ojiz qoldiruvchi hodisa, xoriqi odat) – payg'ambarlarning, haqiqatan ham, Alloh tomonidan bandalarga yuborilgan elchilar ekaniga dalil-hujjat sifatida yuz beradigan g'ayriodatiy hodisalar. Odatda, payg'ambarlarga mo'jiza, avliyolarga karomot beriladi. N. "S.I."-da bu haqda to'xtalgan:

Yana Haq keldi e'joz anbiyog'a,
Aningdekkim, karomat avliyog'a.

Ulug' shoir M.ning ilohiyligi, aql uning sirriga yetolmasligini ham uqtirib o'tgan:

Qayda xavoriq bila mo'jiz durur,
Aql aning idrokida ojiz durur.

O'tmishda payg'ambarlar ko'rsatgan mo'jizalar zamoni va makoniga ko'ra har xil bo'lgan. N. hazrat payg'ambarimiz M.lari ichida Qur'oni Karimning eng ulug' M. ekanini e'tirof etadi:

Buki kalomulloh angadur nasib,
Kim yo'q anga mo'jiza andin g'arib.

Ma'lumki, Rasulululloh (s.a.v.)dan mushriklar M. sifatida oyni ikkiga bo'lishni talab qilishgan. Shunda Muhammad (s.a.v.) Allohga duo qilib, shahodat barmoqlarini oyga ishora qilganlarida, oy ikkiga bo'linib, ulkan M. ro'y beradi. Bu voqea Qur'onning "Qamar" surasida ham bayon qilingan. N. "H.A."ning uchinchi na'tida ana shu M.ga ishora qilgan:

Dema ilik, tig'eki bir bormog'i,
Oyni iki bo'ldi ishorat chog'i.
Tong emas ar ul kafi mo'jiznamoy,
Qilg'ach ishorat iki ayrilsa oy.

Boshqa bir o'rinda hazrat Payg'ambar (s.a.v.) ning o'qimagani va yozmagani, aniqrog'i, yozish u-n qamish qalamning orasini yormagan bo'lsa ham, barmog'i b-n qamar xomasini yorgani, ya'ni oyni ikkiga bo'lgani vasf etiladi:

Bo'lmadi gar xoma boshin yormog'ing,
Yordi qamar xomasini bormog'ing.

Hazrat Payg'ambar (s.a.v.) M.laridan yana biri, u muborak zotni ilohiy nurlar chulg'ab olgani bois, jasadining soyasi yo'q edi. N. bu hodisadan shoirona poetik xulosa chiqaradi va Payg'ambar (s.a.v.)ning yuksak qadri va oliy darajasiga ishora qiladi:

Senki yuz oncha sanga Haq berdi nur,
Tong yo'q agar soyadin o'lsang nufur.

Soya agar bo'lmadi shaxsingg'a yor,
Soyai qadringda durur har ne bor.

Sham'inga chun nuri qidam soyadur,
Nurdur ulkim anga hamsoyadur.

N. "T.A.H."da bir qator payg'ambarlardan sodir bo'lgan turli M.lar haqida ma'lumot beradi. M-n: "...Fir'avn mo'jiza tiladi ersa, Muso (a.s.) asoni ilkidan solg'och, ajdahoye bo'ldikim, haybatidin necha kishi halok bo'ldi". Solih (a.s.) qavmini haq dinga da'vat qilishda davom etgandan keyin, qavmi undan "g'arib mo'jiza" tilaydilar. N. bu voqeaga ishora qilib, xabar beradiki: "Solih (a.s.) duo qilib, Haq taolo ul toshni shaq qilib, teva bo'tasi bila tosh arosidin chiqti".

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ.*

10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Муҳаммад алайҳиссаломнинг мўъжизалари. “Муҳаммад алайҳиссаломнинг мўъжизалари”. (нашрга тайёрловчилар: Рафиддинов С., Раҳимова З.). – Т., 1992.

S.R.

MO‘MIN – (ar. – e’tiqod qiluvchi, dinga ishonuvchi, iymon keltiruvchi). – ilk islom davrida Madina jamoasi a’zosi. Shar’iy amallarni bajaruvchi kishi muslim deb ataladi. M. va muslim so‘zlari lug‘aviy jihatdan farq qilsa-da, keyinchalik bir mazmunda tushunilib ketilgan. Qur’onda M. so‘zi besh o‘rinda keladi. Ahli sunna val-jamoa “qalban ishongan”, o‘z iymonini ochiq, barchaga e’lon qilib, chin niyat b-n yaxshi, solih amallarni bajaruvchini M. hisoblaydi. M., avvalo, olti narsaga iymon keltirish kerak. Ular: “Allohga, uning farishtalariga, kitoblariga, payg‘ambarlariga, qiyomat kuniga, taqdirga – yaxshilik va yomonlik Allohning xohish-irodasi b-n bo‘lishiga va o‘lgandan keyin qayta tirilishga. (Qarang: Iymon, imon). N. “S.M.” asarida ham M. e’tiqod qilishi kerak bo‘lgan mazkur olti narsani ta’kidlab o‘tadi:

Olti durur shar’da go‘yo adad,
Harneki mo‘ming‘a kerak mu’taqad.

N. bir qator asarlarida mo‘minning sifatlarini keltiradi. “A.” asarida M.ning sifatiga bag‘ishlangan bir hadisni shunday tarjima qilgan:

Mo‘min ermastur, ulki iymondin
Ro‘zgorida yuz safo ko‘rgay.
Toki qardoshig‘a ravo ko‘rmas –
Har nekim o‘ziga ravo ko‘rgay.

Maz.: M. o‘ziga ravo ko‘rgan yaxshi narsani boshqalarga ham ravo ko‘radi, yordam beradi. Boshqa bir hadis mazmuniga ko‘ra, Alloh haqiqiy M.da baxillik va yomon xulqni jamlamaydi. M. bu ikki xislatdan xoli bo‘lishi kerak, yo‘qsa u M. hisoblanmaydi:

Mo‘min ersang qilib durringni nisor,
El bila ravshan o‘l nechukkim sham’.
Negakim, Tengri hech mo‘minda,
Buxlu badxo‘yluqni qilmadi jam’.

“N.M.” asarida Shayx Amr bin Usmon Makkiyning “vajd kayfiyatini so‘z b-n ifodalab bo‘lmaydi, chunki u M.lar nazdida, Allohning sirridir” degani naql qilingan. N. ba’zi g‘azallarida M. va kofir, kufr va iymon kabi tazodlar vositasida o‘zining oshiqona va orifona his-tuyg‘ularini ifodalaydi. Bunday baytlarda zulf, kofir, zunnor kabi so‘zlar tasavvufiy ma’nolarni bildirgan. M-n:

Zulfining har tori bir mo‘minni chun kofir qilur,
Desa bo‘lg‘ay oni din ahlig‘a ming zunnorcha.

Ushbu baytda yor zulfining torlari – ilohiy sir va mohiyatning martabalari; kofir – vahdat olamida ayricha maqom topgan kishi, oshiqlikning yuqori darajasi; zunnor – ishq yo‘lidagi sadoqat va itoat ramzi. Ya’ni Allohning sir va tajalliylari – unga talpingan va anglashga harakat qilgan har bir mo‘minni komil oshiq darajasiga yuksaltiradi, deydi shoir.

Ad: *Алишер Навоий. Сирож ул-муслимин. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Ислом дини. – Т., 2013.*

S.R.

MO‘SHABID (ar. – nayrangboz) har xil sehr, nayrangbozliklar ko‘rsatuvchi, tomoshaxona, sayllarda va umuman, xalq ko‘p to‘plangan joylarda tomoshabinlarni kuldiradigan o‘yinlar tashkil qiladigan qiziqchi, ko‘zboylog‘ich. Ular ko‘z ilg‘amas harakat, chaqqonlik va hiyla ishlatib tomosha ko‘rsatishda mohir bo‘lishgan.

N. o‘z asarlarida M.ni o‘z va ko‘chma ma’nolarida mahorat b-n qo‘llagan bo‘lib, o‘zbek tilidagi nayrangboz terminiga teng keluvchi bu so‘zning arabcha so‘zlar va forscha qo‘shimchalardan yasalgan “sho‘badaboz’’, “sho‘badagar”, “sho‘badasanj” singari shakllariga ham tez-tez murojaat etgan. M-n:

Xazl kitobi kabi xattida zeb,
Ma'ni anga fahsh-u fusun-u fireb.

Shu'badagar shishasidek toshi sof,
Zimnida yuz makr ila zarku gazof.

"H.A."ning 9-maqolati Ishq o'ti ta'rifida bo'lib, keltirilgan baytlarda N. soxta oshiqning muhabbat va sadoqat haqidagi gaplarini xatlari chiroyli tarzda ko'rinuvchi, amomo nayrangbozning be'mani, firibgarlik mahsuli bo'lmish "Hazl kitobi"ga o'xshatadi, tashqi qiyofasidan nayrangboz shishasiday yaltiroq shaklda ko'rinsa-da, zimdan o'sha shisha makr-hiylaga to'lib-toshgan, deydi. Bundan ko'rinadiki, XV asrda sho'badagarlar o'z tomoshalarida borni yo'q, yo'qni bor qiluvchi turli asboblardan foydalanganlar.

N. ko'zbo'yamachilik va uning xilma-xil ko'rinishlariga, asbob-anjomlariga oid yana ko'plab atamalarni ishlatadi. Shuningdek, qush va hayvonlarni rom etib, muayyan mashqlarni bajartirib, tomosha ko'rsatuvchilarni "afsungar" ("fusungar") deb, sohaning o'zini "afsun" ("fusun") deb ataydi. Aftidan, N. davridan nayrang, ko'z bog'lovchilik, romchilik (yoki sehrgarlik) o'zaro payvand holda yashagan bo'lsa kerakki, shoir "sho'bada" so'zini "fusun" so'zi b-n bemalol almashtirib, turli xil o'yinlar haqida fikr yuritaveradi. M-n, N.ning bir she'rida "la'b", "lahn", "lahv", "sho'bada" "nag'ma" atamalari ma'no jihatidan, deyarli, bir-biridan farq qilmaganini kuzatish mumkin:

Jununum hayratig'a vahsh
davrumg'a urub halqa,
Musha'bid la'big'a hangoma
ahlidek bo'lub hayron.

Shoir jamiyat va borliqning ayrim hodisalari borasida mulohaza yuritar ekan, o'z fikrini yorqinroq va ta'sirliroq yoritish u-n nayrangboz tomoshalaridan olingan ajoyib tashbehlar ishlatadi. Jumladan, "H.A." dostonining 14-maqolasida shunday satrlarni o'qish mumkin:

Charx erur shu'bada sanj, ey ko'ngul,
Topma firebi bila ganj, ey ko'ngul.

Shu'badasi vahm-u gumondin fuzun,
Shu'badadin dog'i fuzunroq fusun.

Charx urubon rev ila nayrang soz,
O'ylaki ko'k xirqa bila tosboz.

Xirqasida baxyadin anjum nishon,
Bo'yida bir pora yamoq Kahkashon.

Mash'ali hur birlaki, davron qilib,
Tos aro o't xirqada pinhon qilib.

O'tkarib ul xirqa arosidin o't,
Ko'rguzubon subh yaqosidin o't.
Yo'qki chu subh og'zini kulgu ochib,
Hiyla bila og'zidin o'tlar sochib.

O'ylaki ul o'tining uchqunlari
Xirqasi uzra sochilib har sari.

Bunda charx M.dir, deydi shoir, uning nayrangi qo'rquv, gumondan ham ortiq. U nayrangga shu qadar ustaki, bamisoli ko'k to'n kiyib olgan tosbozga o'xshaydi; quyosh b-n o'ynashib, o't tun ichida tos tagida uni g'oyib qiladi; to'n orasidan olov o'tkazib, yoqasidan chiqaradi; hiyla b-n tong og'zini kulgiga ochib, undan o'tlar sochadi, o't uchqunlari har tarafga sochilib ketadi.

N. yuksak mahorat b-n falakni nayrangbozga, osmonni to'ntarilgan tosga, osmon harakatini, yulduzlarni, somon yo'lini, quyoshning olov purkashi, kunduzi ko'rinib, tunlari g'oyib bo'lishini, shafaq, tong otishi va oftob nurlarini ham M. ko'rsatadigan tomoshalariga o'xshatadi. Matndan anglashiladiki, N. zamonida mis toschalar tagiga soqqa bekitib tomosha ko'rsatuvchi huqqabozlar, mash'alalarni otib-otib o'ynovchi, og'izlaridan o'g purkovchi mohir olovbozlar ko'p bo'lgan. Bu fikrni "F.Sh." dostonining 14-bobidagi Farhodning ko'nglini ochish

u-n yig‘ilgan nayrang ahli haqidagi baytlar ham tasdiqlaydi:

Musha’bidlar sipehri bevafoson,
O‘g‘urlab muhra ko‘k tosidin oson.

Chu aylab la’b har nayrangsozi,
Falak har lahza yeb o‘n qatla bozi.

Qilib tunni yorug‘, kunni qarong‘u,
Suvdin o‘t yondurub, o‘tdin sepib suv.

Ko‘kartib shu’laliq o‘tdin sirandon,
Osib o‘rgamchi tori birla sandon.

M. o‘yinlari ta’rifiga bag‘ishlangan satrlar ulug‘ shoir yashagan davrning maishiy-madaniy turmushi haqida ham keng tasavvur berishi b-n qimmatlidir. Farhod sharafiga uyushtirilgan bazmlardan birida har qaysisi osmondan yulduzni uradigan son-sanoqsiz nayrangboz yig‘ilgan bo‘lib, aql bovar qilmaydigan ajoyib-g‘aroyib tomoshalar ko‘rsatilgan: qorong‘i tunni yorug‘ va oydin kunni qorong‘i qilishgan; suvdan o‘t chiqarib, o‘tdan suv paydo qilib atrofga sepishgan; olovda isiriq ko‘kartirishgan va o‘rgimchak to‘ridan nozik ip qilib sandonni osib qo‘yishgan.

N. ustozi va do‘sti A.Jomiy vafotiga bag‘ishlab, fors tilida yozgan marsiyasida kishilarni bu o‘tkinchi dunyoga aldanib qolmaslikka, hushyorlikka chaqiradi:

Har ki sad qarn bimonad ba jahon ham ba fusun,
Biraboyad zi jahonash falaki sho‘badaboz.

Maz.: Jahonda yuz qarn yashagan kimsani ham afsun bilan, O‘yin ko‘rsatuvchi falak jahondan uzib oladi.

Shoir “L.M.” dostoni sarlavhalarida “falak zoli musha’bidlig‘ining buqalamunlug‘i”, “sahob musha’bidi” singari ko‘chma ma’noli birikmalarni istifoda etish b-n ko‘zda tutilgan g‘oyaviy-badiiy mazmunni kuchaytirgan. Umuman olganda, M. istilohi b-n bog‘liq tasvirlar N. asarlarida tarixiy-madaniy, ijtimoiy-falsafiy mohiyati b-n e’tiborlidir.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Қодиров М. Темурийлар даври томоша санъатлари. – Т., 2007.*

S.O‘.

MO‘G‘UL – Mo‘g‘ulistonda yashaydigan asosiy xalqlar nomi. Ayrim Xitoy manbalarida M.ning kelib chiqishi turkiy bo‘lib, ularning ilk ajdodlari tatar (tat, dadan)ga borib taqaladi, deb ko‘rsatiladi. Xorijiy olimlarning aksariyati, jumladan, ayrim Yaponiya va Xitoy tadqiqotchilari M. xunnlarning avlodi, deb hisoblaydi. XII asrning I choragida tatarlar va boshqa Chingizxon boshchiligida o‘zlarining g‘arbdagi va janubdagi qo‘shinlari (kidonlar, qipchoqlar, uyg‘urlar, naymanlar, keraitlar, merkitlar va tangutlar)ni bo‘ysundirib, yirik davlat barpo etganlar. M. elati ana shu davrdan shakllangan.

N. asarlarida M. atamasi boshqa qipchoq, qarluq urug‘ nomlari sirasida tez-tez uchraydi:

O‘zbak, mo‘g‘ul o‘lg‘ay aning ollida musulmon,
Bilman ani qalmoqmudur, yo‘q esa tag‘moch.

N. “S.I.” dostonida Doroga qarshi yurish boshlagan Iskandar qo‘shinlari safida yuz minglab M.lar ham borligini, ular sherpanja, yovqur bahodir jangchi ekanliklarini tasvirlaydi:

Mo‘g‘ul sherpaykarlari o‘tu yolin,
Taaddud aro it tukidin qolin.

Hatto “N.J.” asarida shoir mazkur kitobdan joy oladigan nazm namunalarini M. uslubi ila ziynat (pirosta)lashini faxr b-n ta’kidlaydi: “... Va parishon xotirg‘a va oshufta zamirg‘a bu orzu ko‘p dag‘dag‘a solur erdikim, turkiy tili bila men ham ul laolini orasta qilg‘aymen va bu muddao ko‘p taraddud yetkurur erdikim, mo‘g‘ul uslubi bila men ham ul javohirni pirosta etgaymen,

to zamona nav arusi zeboliq libosi ul murassa’ bila ziynat topqay va sipehr masnadida anjum shohining sarafrozliq toji ul tarsi’ bila mukallal bo‘lg‘ay, to andin turk ulusig‘a ham hazzi shofi va bahrayi vofi muyassar bo‘lg‘ay”.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Назм ул-жавоҳир. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

S.O‘.

QISQARTMALAR RO‘YXATI

ar. – arabcha, arab tilida
a.s. – alayhissalom
akad. – akademik
“A.” – “Arba’in”
b-n. – bilan
“B.B.” – “Badoye ul-bidoya”
“B.V.” – “Badoye ul-vasat”
“D.F.” – “Devoni Foniy”
er. av. – eramizdan avvalgi
“F.A.” – “Fusuli arbaa”
“F.K.” – “Favoyid ul-kibar”
“F.Sh.” – “Farhod va Shirin”
f.f.n. – filologiya fanlari nomzodi
f.f. d-ri – filologiya fanlari doktori
f. – forscha, fors tilida
f-t. – fors-tojik
“H.A.” – “Hayrat ul-abror”
“H.S.H.A.” – “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”
“H.P.M.” – “Holoti Pahlovon Muhammad”
h. – hindcha, hind tilida
h.k. – hokazo
“I.D.” – “Ilk devon”
inv. – invertar
l. – lotincha
“L.M.” – “Layli va Majnun”
“L.T.” – “Lison ut-tayr”
m-n. – masalan
maz. – mazmuni
mil. av. – miloddan avvalgi
“M.N.” – “Majolis un-nafois”
“M.Q.” – “Mahbub ul-qulub”
“M.A.” – “Mezon ul-avzon”
“MAT” – Mukammal asarlar to‘plami
“M.L.” – “Muhokamat ul-lug‘atayn”
“M.” – “Munshaot”
“Munj.” – “Munojot”
mo‘g‘. – mo‘g‘ulcha
N. – Navoiy
N.xonlik – Navoiyxonlik
N.shunos. – Navoiyshunos
“N.N.” – “Navodir un-nihoya”
“N.Sh.” – “Navodir ush-shabob”
“N.J.” – “Nazm ul-javohir”
“N.M.” – “Nasoyim ul-muhabbat”
prof. – professor
q. – qozoqcha
q.s.a. – quddisa sirruhum aziz
q.t.s. – qaddasollohu taolo sirrahu
r.a. – roziyallohu anhu
r.t. – rahmatullohu taolo
“R.M.” – “Risolayi mufradot”
s.t. – subhanohu taolo
s.a.v. – sallollohu alayhi vasallam
“S.” – “Soqiynoma”
“S.S.” – “Sab’ai sayyor”
“S.I.” – “Saddi Ikandariy”
“S.M.” – “Siroj ul-muslimin”
“S.Z.” – “Sittayi zaruriya”
sm. – santimetr
Tarj. – tarjimasi
“T.A.” – “Tuhfat ul-afkor”
“T.A.H.” – “Tarixi anbiyo va hukamo”
“TAT” – Tanlangan asarlar to‘plami
“T.M.A.” – “Tarixi muluki ajam”
t. – turkiy
t.y. – tug‘ilgan yili
t.y.n. – tug‘ilgan yili noma’lum
t. va v.e.y.n. – tug‘ilgan va vafot etgan yili noma’lum
u-n. – uchun
“V.” – “Vaqfiya”
v.y.n. – vafot yili noma’lum
v.e.y.n. – vafot etgan yili noma’lum
y. – yunoncha, yunon tilida
y. – yil, yili, yilda, yilning
yy. – yillar, yillari, yillarda, yillarning
O‘zME – O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi
O‘zMU – O‘zbekiston Milliy Universiteti
O‘zR FA – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
“X.” – “Xamsa”
“X.M.” – “Xazoyin ul-maoniy”
“Xam.M.” – “Xamsat ul-mutahayyirin”
“G‘.S.” – “G‘aroyib us-ig‘ar”
ShI. – Sharqshunoslik instituti
ShQM. – Sharq qo‘lyozmalari markazi
“Ch.D.” – “Chor Devon”

№	“ALISHER NAVOIY ENSIKLOPEDIYASI” MUALLIFLAR RO‘YXATI		Qisqartmalar
1	Muhammad ABDULLAYEV	*filologiya f.n.*	*Muh.A.*
2	Abdusalom ABDUQODIROV	*filologiya f.d., prof.*	*Ab.A.*
3	Abdurashid ABDUG‘AFUROV	*filologiya f.d., prof.*	*A.A.*
4	Shoira AHMEDOVA	*filologiya f.d., prof.*	*Sh.A.*
5	Toshpo‘lat AHMEDOV	*filologiya f.n*	*T.A.*
6	Azizullah ARAL	*f.f.b.f.d. (PhD)*	*Az.A.*
7	Maqsud ASADOV	*filologiya f.d., prof.*	*M.A.*
8	Gulnora ASTANOVA	*filologiya f.d., dotsent*	*G.A.*
9	Dilmurod ASQAROV		*D.A.*
10	Hamida ASHUROVA		*H.A.*
11	Nazora BEKOVA	*filologiya f.d., prof.*	*Naz.B.*
12	Nasiba BOZOROVA	*filologiya f.n., dotsent*	*N.B.*
13	Olim DAVLATOV	*f.f.b.f.d. (PhD)., dotsent*	*O.D.*
14	Qodirjon ERGASHEV	*filologiya f.d.*	*Q.E.*
15	Iroda ERNAZAROVA	*f.f.b.f.d. (PhD)*	*I.E.*
16	Husniddin ESHONQULOV	*filologiya f.d., prof.*	*H.E.*
17	Baxtiyor FAYZULLOYEV	*filologiya f.n., dotsent*	*B.F.*
18	Obidaxon FAYZULLAYEVA	*filologiya f.d.*	*O.F.*
19	Munis HAKIMOV		*Mun.H.*
20	Muhammadjon HAKIMOV	*filologiya f.d., prof.*	*Muh.H.*
21	Ibrohim HAQQUL	*filologiya f.d., prof.*	*I.H.*
22	Mahmud HASANIY	*tarix f.d., prof.*	*M.H.*
23	Nodirxon HASANOV	*filologiya f.d., prof.*	*N.H.*
24	Shafoat HASANOVA	*filologiya f.d.*	*Sh.H.*
25	Abduqodir HAYITMETOV	*filologiya f.d., prof.*	*Ab.H.*
26	Anvar HOJIAHMEDOV	*filologiya f.d., prof.*	*An.H.*
27	Hamidjon HOMIDIY	*filologiya f.d., prof.*	*H.H.*
28	Nishonboy HUSANOV	*filologiya f.d., prof.*	*Nish.H.*
29	Muyassar IBROHIMOVA	*f.f.b.f.d. (PhD)*	*M.I.*
30	Yoqubjon IS’HOQOV	*filologiya f.n., prof.*	*Y.I.*

31	Rashid JUMAYEV	*f.f.b.f.d. (PhD)*	*R.J.*
32	Sofiya JUMAYEVA	*filologiya f.n., dotsent*	*S.J.*
33	Nusratulla JUMAXO‘JA	*filologiya f.d., prof.*	*Nus.J.*
34	Laylo JO‘RAYEVA	*san’atshunoslik f.b.f.d. (PhD)*	*L.J.*
35	Nasiba JO‘RAQULOVA		*N.J.*
36	Farida KARIMOVA	*filologiya f.d*	*F.K.*
37	Yulduz KARIMOVA	*filologiya f.n., dotsent*	*Y.K.*
38	Najmiddin KOMILOV	*filologiya f.d., prof*	*N.K.*
39	Iskandar MADG‘OZIYEV		*I.M.*
40	Natan MALLAYEV	*filologiya f.d., prof*	*N.M.*
41	Muzaffar MAMATQULOV	*filologiya f.d*	*Muz.M.*
42	Badriddin MAQSUDOV	*filologiya f.d., prof*	*Badr.M*
43	Mohigul MAVLONOVA		*M.M.*
44	Barno MIRZAYEVA	*f.f.b.f.d. (PhD)*	*B.M.*
45	Mahbuba MIRZAAHMEDOVA		*Mah.M.*
46	Badia MUHIDDINOVA	*filologiya f.d.*	*Bad.M.*
47	Abdumannon NAZAROV	*san’atshunoslik f.d., prof.*	*A.N.*
48	Shahnoza NORQULOVA	*f.f.b.f.d. (PhD)*	*Sh.N.*
49	Marvarid NURBAYEVA		*M.N.*
50	Ergash OCHILOV	*f.f.n., dotsent*	*E.O.*
51	Sarvinoz OTAQULOVA		*S.O.*
52	Zeboxon QOBILOVA	*filologiya f.d., prof*	*Z.Q.*
53	Turg‘un QODIROV		*T.Q.*
54	Karimboy QURAMBOYEV	*filologiya f.d., prof*	*K.Q.*
55	Elnura QURBONOVA	*f.f.b.f.d. (PhD)*	*E.Q*
56	Komiljon RAHIMOV	*tarix f.d.,prof.*	*K.R.*
57	Vahob RAHMONOV	*filologiya f.n., dotsent*	*V.R.*
58	Zulayho RAHMONOVA	*f.f.b.f.d. (PhD), dotsent*	*Z.R.*
59	Shahnoza RAHMONOVA		*Sh.R.*
60	Burobiya RAJABOVA	*filologiya f.n., dotsent*	*B.R.*
61	Sayfiddin RAFIDDINOV	*filologiya f.n., dotsent*	*S.R.*
62	Nodir RAMAZONOV	*f.f.b.f.d. (PhD)*	*N.R.*
63	Rohila RO‘ZMONOVA	*filologiya f.n., dotsent*	*R.R.*
64	Dilorom SALOHIY	*filologiya f.d., prof.*	*D.S.*
65	Gulnoz SATTOROVA	*filologiya f.n., dotsent*	*G.S.*

66	Qaldibek SEIDANOV		*Q.S.*
67	Hanifa SOLIXOVA	*filologiya f.n., dotsent*	*H.S.*
68	Shodiya TURDIYEVA		*Sh.T.*
69	Ozoda TOJIBOYEVA	*f.f.b.f.d. (PhD)*	*O.T.*
70	Olmos ULVIY (BINNATOVA)	*filologiya f.d., prof.*	*O.U.*
71	Ergash UMAROV	*filologiya f.d., prof.*	*E.U.*
72	Gulnoz XALLIYEVA	*filologiya f.d., prof.*	*G.X.*
73	Muslima XOLBOYEVA		*M.X.*
74	Sirdaryoxon O‘TANOVA	*filologiya f.n., dotsent*	*S.O‘.*
75	Suyima G‘ANIYEVA	*filologiya f.d., prof.*	*S.G‘.*
76	Dilshod G‘OYIPOV	*filologiya f.d., prof.*	*D.G‘.*
77	Maftuna SHOMURODOVA		*M.Sh.*
78	Nodir JO‘RAQO‘ZIYEV	*filologiya f.d.*	*Nod.J.*

РЕЗЮМЕ

Изучение жизни и творчества Алишера Навои, великого поэта-мыслителя, несравненного представителя истории человеческой цивилизации, зрелого государственного и общественного деятеля, продолжается и по сей день. Источник вдохновения поэта, тайны совершенства, духовная сила творчества, кроме того, его ни с чем не сравнимое место в развитии искусства поэтического слова чрезвычайно велико и уникально. Вот почему внимание к литературному наследию Алишера Навои не только в Узбекистане, но и среди тюркских народов, и во всем мире имеет особое значение, поскольку Навои призывает человечество к согласию, солидарности, миру и дружбе.

Изменения и свобода в социальной, политической, культурной и духовной жизни нашей страны после 2016 года нашли отражение в изучении наваиведения. Глава государства Ш.М. Мирзиёев с первых дней своей деятельности на посту Президента уделяет особое внимание вопросам исследования творчества Навои и призывал народ изучать его произведения с новой духовной потребностью и целью. В постановлении Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года №ПП-4865 «О широком праздновании 580-летия со дня рождения великого поэта и мыслителя Алишера Навои», также включен вопрос об издании четырёхтомной «Энциклопедии Алишера Навои». Данная энциклопедия создана для выполнения этой задачи и ознакомления широкой общественности с жизнью, творчеством, литературным и научным наследием великого поэта-мыслителя, а также достижениями наваиведения.

В энциклопедии, прежде всего, собрано большинство статей, относящихся ко второй половине XV века, то есть о ряде положительных событий и изменений в общественной, политической, духовной и литературной жизни Хорасана и Моваруннахра, конечно-же, уделяется внимание к анализу факторам, которые вызвавали этих перемен. Это позволяет понять жизненную силу Тимуридского Возрождения и внимательно изучать роль Алишера Навои в нем. В энциклопедию также вошли статьи о детстве великого поэта, его близких родственниках, учителях и подробностях его отношений с ними. В частности, исторические сведения и мнения, ка сающиеся семьи Навои, образа жизни в Мешхеде, Балхе, Самарканде, и друзей поэта, безусловно, не оставят читателей равнодушными.

Как государственный деятель, Алишер Навои проявил свои лидерские качества в политической деятельности, в частности, он руководил рядом строительных работ, таких как рытье рвов, строительство мостов, парков, медресе, мечетей, больниц, о которых говорится в очень интересных статьях. Из книги можно получить достаточно информации о тюркских народах, известных поэтах и чиновниках Герата, столицы Хорасана во времена правления Хусейна Бойкара.

Творчество Алишера Навои – особое явление не только в узбекском, но и в восточном классическом искусстве. Смысловой мир его произведений, масштаб темы, способ выражения поэта, мир образов, система жанров, художественные возможности тщательно и систематически освещаются в энциклопедических статьях. Известно, что Алишер Навои, как великий двуя-

зычный поэт, умело писал на двух языках – турецком и персидском. Читателей не оставят равнодушными мнения о наследии поэта на персидском языке, его общечеловеческом значении и изучении. В книге содержится множество статей о поэмах и героях «Хамсы» Алишера Навои, которые, как известно, занимают большое место в истории восточной литературы, а также можно познакомиться с важными взглядами ученых в этой сфере. Статьи, посвященные духовным ценностям, освещающим творчество великого поэта-мыслителя: религии, мистике, мистическому смыслу и интерпретациям, повысили научную ценность энциклопедии.

Опытные переводчики неоднократно переводили произведения Алишера Навои на разные языки мира; они изданы в виде книг в ряде стран. Информация об этих переведенных работах, а также достижения в мировых исследованиях наваиведения указывают на объём энциклопедии. Рукописные и литографические издания произведений Алишера Навои хранятся в различных библиотечных фондах мира. По ним также создано несколько каталогов. Одним из достижений книги является то, что она дает о них как можно больше информации. Несомненно, читателей интересует возникновение в области литературоведения важного направления под названием «наваиведение», этапы его развития, зрелые ученые, их беспрецедентный вклад в развитие науки. Статьи, написанные по направлениям «Навои и живопись», «Навои и скульптура», «Навои и кино» и «Навои и театр», показывают, как великий образ поэта отражается в жизни общества. Что касается статей, написанных в рубрике «Навои и наука», то в них подробно освещаются факты, связанные с конференциями, посвященными творчеству и деятельности Навои, научным исследованиям, ученым, принимавшим участие в этом процессе.

В узбекской науке за многие годы сделано немало положительных работ по изучению наследия великого мыслителя и поэта: среди них научные и критические тексты его произведений, неоднократные издания, обзоры его лирических произведений, прозаические повествования его поэм тоже занимает особое место энциклопедии. Также вы можете найти ценную информацию о предприятиях и организациях имени Навои в стране.

В целом «Энциклопедия Алишера Навои» представляет собой относительно совершенную книгу, охватывающую личность, мировоззрение, биографию, жизнедеятельность, литературное и научное наследие великого поэта-мыслителя, подробные сведения и научные анализы о исследованиях и достижениях в направлении наваиведения. Энциклопедия предназначена для старшеклассников, студентов высших учебных заведений, преподавателей, представителей интеллигенции различных профессий, специалистов науки и творчества, а также читателям.Естественно, что это издание, как и любая другая книга, может иметь и некоторые недостатки. Однако, как отдельная отрасль науки наваиведения также продолжает развиваться, поэтому мелкие ошибки можно исправить в будущих изданиях. Мы надеемся, что эта «Энциклопедия Алишера Навои» во многом поможет приблизить Навои к народу, а, в свою очередь, народ к Навои.

SUMMARY

Alisher Navoi was a prominent poet and thinker who had a significant impact on the development of human civilization. His life and work continue to inspire people to this day. The study of them by scientists has never stopped. The source of inspiration, secrets of spiritual perfection and strength of his creation has a unique place in the development of the art of poetic speech. The particular importance of Navoi's literary heritage has been proven by scientists not only in Uzbekistan but also among the Turkic peoples and the rest of the world. His books are unique. They emphasize the significance of harmony, unity, peaceful living, cooperation, and friendship which make people go through the true way.

The renewal and freedom in the social, political, cultural, and spiritual life of our country after 2016 has also reflected in Navoi studies. From the first days of his activity, the President of our country Sh.M. Mirziyoyev encouraged the whole nation to read and study Navoi's work with a new spiritual need and purpose. In the resolution of the President of the Republic of Uzbekistan dated October 19, 2020 No. PR-4865 "On the wide celebration of the 580th anniversary of the birth of the great poet and thinker Alisher Navoi", including the publication of the four-volume "Encyclopedia of Alisher Navoi" was also included. This encyclopedia was created in order to fulfill this task and familiarize the general public with the life, work, literary and scientific heritage of the great thinker poet, as well as the achievements of Navoi studies.

The encyclopedia devoted a lot of space to positive developments in the social, political, spiritual, and literary life of Khurasan and Movarounnahr during the second half of the 15th century, when Alisher Navoi lived, as well as the factors that created them. This allows us to understand the vitality of the Timurid Renaissance and closely observe the role of Alisher Navoi in it. There are a lot of articles about the childhood years of the great poet, his close relatives, and the details of his interactions with them in the encyclopedia they also have a significant place. The historical information and opinions related to Navoi's family, lifestyle in Mashhad, Balkh, Samarkand, his friends and contemporaries can provide readers with interest. As a minister, Alisher Navoi fully demonstrated his leading qualities in his political activities. He oversaw the construction of various structures such as ditches, bridges, parks, madrasahs, mosques, and hospitals. It should be noted that each of these works was mentioned in the encyclopedia. From the book, you can learn enough about the Turkic peoples who lived and worked in Herat, the capital of Khurasan under the rule Sultan Husayn Bayqara. It is possible to find a valuable information about their unique nature, customs, and the positions that they held in the palace in 15th century. The articles interestingly and impressively tell about the contemporaries, friends of the great poet, creative people from the time of the famous composer Alisher Navoi, and their path.

Alisher Navoi was a remarkable figure not just in Uzbek literature, but also in Eastern classical art. His books were characterized by their depth of meaning, wide-ranging subject matter, expressive style, vivid imagery, diverse genres, and artistic versatility. These aspects of his work have been carefully and systematically covered in encyclopedic articles. Navoi was a great poet who wrote equally well in

Turkish and Persian. This book includes insightful reflections on his Persian-language poetry, its universal significance, and its study. Additionally, the book covers his epic work "Khamsa," which holds a prominent place in the history of Eastern literature, along with its heroes and important views on Hamsaology. The articles in this book also shed light on the spiritual values of Navoi's work, including religion, mysticism and mystical interpretations, thereby enhancing the scientific significance of the encyclopedia.

The literary works of Alisher Navoi have been translated multiple times by experienced translators into various languages. These translations have been published and can be found in different libraries of the world. Manuscript and lithographic editions of Navoi's works are also available in these libraries and several catalogs have been created to organize information about them. This encyclopedia provides extensive information about Navoi studies, including the emergence of this field of literary studies, its development, important scholars, and their contribution to the field. Articles about Navoi's connection with painting, sculpture, cinema, and theater also show how his works have influenced society. Furthermore, the encyclopedia includes articles about Navoi's involvement with science, including information about conferences, scientific studies, and notable scholars and researchers who participated in these events.

Over the years, many positive works have been carried out in Uzbek science to understand the language of the great poet. These include scientific and critical texts, and repeated editions of his works in volumes and separately, reviews of the poet's lyrical heritage, and articles about them in the encyclopedia. Moreover, information which is related to the place names, enterprises, and organizations named after Navoi has not been overlooked.

In general, the "Alisher Navoi Encyclopedia" is an almost perfect reference book that covers many things about Navoi's personality, worldview, biography, life activities, literary, scientific heritage, detailed information, Navoi studies, and achievements in this field. It is intended for high school and educational institution students, teachers, intellectuals with various professions and trades, people of science and creativity. Like any publication, this book also has some mistakes, but the science of Navoi studies has never stopped developing. Therefore, it is clear that they can be corrected in the next editions. We believe that the "Alisher Navoi Encyclopedia" will be a useful resource to recognise Navoi's world well.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI

ALISHER NAVOIY ENSIKLOPEDIYASI

II JILD

(I–M)

Muharrirlar: Dilmurod Asqarov, Hamida Ashurova
Badiiy muharrir: Mirzohid Rustamov
Musahhihlar: Sarvinoz Otaqulova, Shodiya Husniddinova
Kompyuterda sahifalovchilar: Bobur Tuxtarov, Mirzohid Rustamov

Bosishga ruxsat etildi 08.02.2024. Bichimi: 84x108 $^{1}/_{16}$.
“Times New Roman” garniturasi. Shartli bosma tabog‘i ___.
Nashriyot-hisob tabog‘i ___. Adadi: 1000 nusxa.

“Credo Print” MCHJ kitob fabrikasida chop etildi.
Toshkent shahar, Bog‘ishamol ko‘chasi 160.
Tel: 71 234-44-01/05 www.credoprint.uz

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI

ALISHER NAVOIY ENSIKLOPEDIYASI

III JILD

(N–S)

TOSHKENT – 2024

TAHRIR HAY'ATI
Bahrom ABDUHALIMOV, Nizomiddin MAHMUDOV,
Shuhrat SIROJIDDINOV, Sirojiddin SAYYID, Jabbor ESHONQULOV,
Olim DAVLATOV, Nodir JONUZOQ, Isajon SULTON

ILMIY-IJODIY GURUH
Abduqodir HAYITMETOV, Ibrohim HAQQUL, Maqsud ASADOV,
Qodirjon ERGASHEV, Sayfiddin RAFIDDINOV, Ergash OCHILOV,
Burobiya RAJABOVA, Zulayho RAHMONOVA, Sirdaryoxon O'TANOVA

MAS'UL MUHARRIR
Maqsud ASADOV,
filologiya fanlari doktori, professor

NASHR UCHUN MAS'ULLAR
Elnura QURBONOVA, Shahnoza RAHMONOVA,
Hamida ASHUROVA, Dilmurod ASQAROV

TAQRIZCHILAR
Hamidulla BOLTABOYEV, *filologiya fanlari doktori, professor*
Karomat MULLAXO'JAYEVA, *filologiya fanlari nomzodi, dotsent*

MUNDARIJA

N 5

O 193

P 239

Q 256

R 326

S 386

Qisqartmalar ro‘yxati 525

“Alisher Navoiy ensiklopediyasi” mualliflar ro‘yxati 526

Резюме (рус.) 529

Summary (ingl.) 531

UO‘K 821.512.133-1
KBK 84(5O‘)-5
M 30

Alisher Navoiy ensiklopediyasi: Toshkent – O‘zbekiston nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2024. – ___b.

Ko‘p jildli “Alisher Navoiy ensiklopediyasi” buyuk shoir va mutafakkir, yirik davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiy mansub bo‘lgan XV asrning II yarmi Xuroson va Movarounnahrdagi tarixiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy va adabiy hayot, ulug‘ shoirning tarjimayi holi, faoliyati, yaqinlari, do‘stlari, ijodiyotining ma’naviy sarchashmalari, salaflari, adabiy merosi va uning jahonshumul ahamiyati, qolaversa, mumtoz adabiyotimiz tarixida tutgan beqiyos o‘rni xususida atroflicha ma’lumotlarni qamrab olgan yirik qomusdir. Ensiklopediyadan navoiyshunoslik masalalari, buyuk shoir asarlarining turli yillardagi nashrlari, xorijiy tillarga tarjimalari, yurtimiz va jahon kutubxonalari xazinalarida saqlanayotgan qo‘lyozma hamda toshbosma kitoblari, shuningdek, rassomchilik, haykaltaroshlik, teatr, kino singari san’at turlarida Alisher Navoiy siymosining aks ettirilishiga doir maqolalar ham o‘rin olgan. Turli she’riy janrlarga oid asarlarining sharh va tahlillaridan ayrim namunalar keltirilgan. Jumladan, kitobning mazkur 1-jildiga 620 ta maqola kiritilgan bo‘lib, ular mavzu xilma-xilligi, ko‘pgina ma’lumot va dalillarning yangiligi, aniqligi va qiziqarliligi bilan o‘ziga xosdir.

“Alisher Navoiy ensiklopediyasi” navoiyshunos olimlar, mumtoz adabiyot bilan shug‘ullanuvchi tadqiqotchilar, oliy ta’lim muassasalarining o‘zbek filologiyasi yo‘nalishi professor-o‘qituvchilari, talabalari, o‘rta maktablarning adabiyot muallimlari, umuman, Alisher Navoiy hayoti va ijodiyotiga qiziquvchi keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-oktyabrdagi “Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi PQ-4865-son qaroriga asosan Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbek tilini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan chop etildi.

ISBN 978-9910-9559-3-8
© “O‘zbekiston” nashriyoti, 2024

N

NABIYEV Rashid (1912, Samarqand – 1985, Toshkent) tarixchi olim, O‘zR FA muxbir a’zosi (1952), tarix fanlari doktori (1967), Samarqand pedagogika texnikumi (1927–30) va Farg‘ona pedagogika institutida (1930–33) o‘qigan. O‘zR FA Tarix va arxeologiya instituti direktori (1947–52), O‘zR FA Ijtimoiy fanlar bo‘limi mudiri (1952–56). 1956-y.dan O‘zR FA Sharqshunoslik institutida katta ilmiy xodim.

N.R.ning “XV asrda Movarounnahrning siyosiy-iqtisodiy hayoti tarixidan” mavzusidagi ilmiy ishi N. davri tarixi, siyosiy-iqtisodiy holatlarni ishonchli manbalar asosida yoritilgani b-n muhim o‘rin tutadi. Unda bu davr siyosiy hayotida faol ishtirok etgan Xoja Ahror Valiy haqida qaydlar mavjud. Olim mazkur davrga oid muhim chizgilarida N.ga maxsus to‘xtaladi. Xususan, uning XV asr 60–70-yy.dagi faoliyati, shoirning Samarqanddagi hayotiga doir ma’lumotlarni keltirishda birlamchi manbalarga tayangan. N. va Xoja Ahror Valiy orasidagi o‘zaro munosabat va yozishmalar, shuningdek, temuriylardan Shohrux Mirzo, Ulug‘bek Mirzo, Boysunqur, Abu Said, Husayn Boyqarolar hukmronligi davrida o‘ynagan roli, siyosiy-tarixiy mavqeyi haqida chuqur mulohazalarini bayon qilgan. Olimning xulosalariga ko‘ra, N. XV asrning 2-yarmida Xurosondagi madaniyat, san’at, adabiyot va arxitektura rivojiga katta hissa qo‘shgan ulug‘ mutafakkir bo‘lgan.

Ad.: *ЎзМЭ. 6-жилд. – Т., 2003; Великий узбекский поэт. Сборник статей под редакцией М.Т.Айбека – Т., 1948.*

S.O‘.

NABIYEV Fayzillaxon Shohimardonovich – adabiyotshunos, f.f.n. N.F.Sh. faoliyati davomida N. ijodiga oid qator ilmiy tadqiqotlar olib bordi. U 1990-y. “Alisher Navoiy ijodida qahramonning ruhiy dunyosi va tabiat tasviri” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Olimning ilmiy tadqiqoti N. dostonlari misolida qahramon va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro munosabat, uning ma’naviy olami va manzara tasviri masalalariga bag‘ishlangani b-n muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda N.ning “F.Sh.”, “L.M.” dostonlari bosh qahramonlari, ularning mashaqqatli sarguzashtlari, qahramonliklari, chinakam insoniy fazilatlari, yurtparvarliklari, kishilarning baxt-iqbolga erishgan holda tinch-totuv va osoyishta yashashlari, ona-yurt istiqboli, uning zamini va tabiatning yanada gullab-yashnashi borasidagi intilishlari, shu maqsad yo‘lidagi sobitqadamliklari ochib beriladi.

N.F.Sh. bundan tashqari, N. dostonlarida peyzaj yaratish mahoratiga bag‘ishlangan qator ilmiy ishlarning muallifidir. Olimning tadqiqotlari ilmiy jamoatchilikning diqqat-e’tiborini qozongan.

Ad.: *Набиев Ф. Алишер Навоий ижодида каҳрамоннинг руҳий дунёси ва табиат тасвири. – Т., 1990.*

S.O‘.

NABIY – (ar. – ko‘pligi anbiyo) ilohiy xabar keltiruvchi, payg‘ambar (qarang: Payg‘ambarlar). N.ning Rasuldan farqi shuki, N.lar o‘zlariga maxsus kitob va shariat berilmay, bir Rasul (ya’ni Alloh elchisi)ga ato etilgan kitob va shariatga

amal qilmoqqa buyurilgan payg‘ambarlardir. Islom dinida Payg‘ambarlarga iymon keltirish har bir mo‘min u-n farz sanaladi. Navoiy “H.A.” va “S.M.”da bu borada aytib o‘tgan:

Yana ham anbiyog‘a qilmoq iqror,
Ki, borin elga irsol etti Jabbor.

Har bir nabiy rasul bo‘lolmaydi, ammo har bir rasul ayni paytda ham nabiy, ham rasuldir. Navoiyga ko‘ra, “...va mursal uldurkim, anga vahiy Jabroil vositasi bila kelmish bo‘lg‘ay. Va g‘ayri mursal ulkim, ilhom yo tush bila elga rahnamoyliq qilg‘ay”. Navoiy hazrat Payg‘ambarimizni ham N., ham rasul sifatida zikr qiladi.

Ajab yo‘q sen o‘lmoq ato, ul sabiy,
Bu ma’nig‘adur dol “Kuntun-nabiy”.

“Kuntun-nabiy” – “men payg‘ambardirman...”, deb boshlanadigan hadis iborasi. Mazkur hadisda hazrat Muhammad (s.a.v.) Odam Atodan oldin, hali u kishi dunyoga kelmasdanoq payg‘ambar ekanligiga ishora qilgan.

Navoiy N.lik martabasining olimlik, oriflik va voizlik kabi har qanday martabadan ulug‘ligini ta’kidlab, N. shariatini diyonatning asosi deb biladi:

Masihoyin agar minbarda zohir qilsa dam voiz,
Nabiy o‘rnig‘a urmoq behayolig‘dur qadam voiz...

Tutay der esang Tengri amrin qavi,
Bo‘l oxir nabiy shar’ining payravi.

Navoiy asarlarida N. so‘zi umumiy nom b-n barcha payg‘ambarlarga nisbatan ham qo‘llangan. Buning yorqin misolini “T.A.H.” asarida ko‘ramiz: “...va Solih nabiy va Samud qavmin qissasini aytti va ul shox oltundin ham xabar berdi”, “...arab Hud dedi. Ya’ni, nabiyullohdir, mu’jizoti ko‘ptur”, “...mo‘r dedikim, yo nabiyalloh, sendin xotirjamdurman, ammo shoyad saning shuurung bo‘lmagay, xaylingdin osib etkay, deb tanbih voqe’ bo‘ldi”.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий.Сирож ул-муслимин. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

S.R.

“NAVBAHOR AYYOMI BO‘LMISH…” – N.ning “G‘.S.” devoniga kiritilgan g‘azali:

Navbahor ayyomi bo‘lmish, men diyor-u yorsiz,
Bulbul o‘lg‘andek xazon fasli gul-u gulzorsiz.

Goh sarv uzra, gahe gul uzra bulbul nag‘masoz,
Vahki, menmen gung-u lol, ul sarvi gulruxsorsiz.

Tong emastur gar diyor-u yorsiz ozurdamen
Kim, emas bulbul gul-u gulzorsiz ozorsiz.

Ravza ashjori o‘tundur, gullari jonimg‘a o‘t,
Mumkin o‘lsa anda bo‘lmog‘lig‘ dame dildorsiz.

May chu berding zulf bilan band et meni,
ey mug‘bacha
Kim xush ermas mug‘ bila ichmak
qadah zunnorsiz.

Topmaduq gulrang jomi bexumor, ey bog‘bon,
Vahki, bu gulshan aro gul butmas ermish xorsiz.

Ahli zuhd ichra Navoiy topmadi maqsadqa yo‘l,
Vaqtingizni xush tutung, ey jam’kim, xummorsiz.

G‘azal aruzning ramal bahrida bitilgan. Yetti baytdan tarkib topgan. Mazmun-mohiyati b-n oshiqona g‘azallar turkumiga kiradi. Zero, uning bosh qahramoni – oshiq. Fikr-tuyg‘ular ham oshiq tilidan aks ettirilgan. Maqta’dan anglashilishicha, she’r navbahor faslida, ilk bahor taassurotlaridan tug‘ilgan. Lekin she’r qahramoni o‘zini “xazon fasli”da gul-u gulzorsiz qolgan bulbul holatida tasavvur etadi. Negaki, u yor-u diyoridan yiroqda – ko‘klam havosi va uyg‘onishlarini emas, ko‘ngilda kuzning nafasi va hazinligini his etadi:

Navbahor ayyomi bo‘lmish, men diyor-u yorsiz,
Bulbul o‘lg‘andek xazon fasli gul-u gulzorsiz.

Tabiat, albatta, inson kayfiyatlari b-n hisoblashmaydi. Ammo har qanday faslda ham insonga o‘zining holati va qismatini keng mushohada qilishga imkoniyat yaratadi. Birinchi baytdagi bulbulga doir gap tasavvur hosilasi edi. Aslida esa oshiq – shoir nigohi “goh sarv uzra”, “goh gul uzra” qo‘nib-uchib sayrayotgan bulbulga qadalgan. Ko‘ngil va ruhni zavqlantiradigan shu manzara ham uning g‘amiga g‘am, alamiga alam qo‘shadi:

Goh sarv uzra, gahe gul uzra bulbul nag‘masoz,
Vahki, menmen gung-u lol, ul sarvi gulruxsorsiz.

Qiyos – insonni goh qiynasa, goh suyaydi. Qiyos – ba’zan murosasizlikka chorlasa, ba’zan tamkin va tasalliga undaydi, gohida chorasizlik sabablarini ko‘rsatsa, gohida irodani sinashga ko‘niktiradi.

Tong emastur gar diyor-u yorsiz ozurdamen
Kim, emas bulbul gul-u gulzorsiz ozorsiz.

Butun borlig‘i hijrondan ezilgan oshiq har qanday azob va qiynoqqa chidashi mumkin. Faqat yor visolidan noumid bo‘lmasligi kerak. Diydor umididan ajralsa – u hamma narsadan ajraladi. Hatto jannat istagi ham so‘nadi yoki tamoman teskari mazmun kasb etadi:

Ravza ashjori o‘tundur, gullari jonimg‘a o‘t,
Mumkin o‘lsa anda bo‘lmog‘lig‘ dame dildorsiz.

Maz.: Agar dildorsiz biror bir dam jannatda bo‘lishga to‘g‘ri kelsa, uning daraxtlari men u-n quruq o‘tin-u, gullari jonimni kuydiradigan olovdan boshqa bir nima emasdir. Jon jonon ila, jonon esa ravzayi rizvondir.

Ma’lumki, N. g‘azaliyotida majoziy ishq b-n ilohiy ishq o‘rtasida qat’iy bir chegara yo‘q. Ulug‘ shoir ishqiy kechinmalar tasvirini yaratar ekan, ko‘pdan ko‘p g‘azallarida, avvalo, majoziy ishq haqiqatlariga tayanadi. N. u-n insoniy ishqning hosilasi – Alloh sevgisi bo‘lganidek, haqiqiy ishqning mevasi – olam va odamga muhabbatdir. Bu muvofiqlik yuqorida talqin qilingan baytlarda ham ko‘zga tashlanadi. Shu u-n navbahor haqidagi bir “xabar” tabiiy ravishda “gul – gulzor”, “yor – diyor”, “bulbul – oshiq”, “vasl – hijron” to‘g‘risidagi tasvir va ta’riflar b-n uyg‘unlashadi. Tashbeh va timsollari mutanosibligidan esa ko‘z va ko‘ngilni yayratadigan jonli manzara yaraladi. To‘rtinchi baytga kelganda mohiyatan o‘zgarish, to‘g‘rirog‘i, yuksalish boshlanadi. Darhaqiqat, keyingi misrada tilga olingan “Dildor” endi faqat zamin go‘zali emas. Balki oliy go‘zallik ramzi Yori azaldir. Agar ushbu haqiqat e’tiborga olinmasa, asosan, tasavvufiy ma’no va timsollardan tarkib topgan navbatdagi baytning asl mazmuni ochilmasdan qolaveradi:

May chu berding zulf bilan band et meni,
ey mug‘bacha
Kim xush ermas mug‘ bila ichmak
qadah zunnorsiz.

Baytdagi fikr aynan qabul qilinadigan bo‘lsa, u bunday: Ey majusiylarning ibodatxonasida may tashuvchi bola, mayni-ku berding, endi zulf b-n band ayla. Belga zunnor bog‘lamasdan otashparast b-n qadah ko‘tarish yaxshi emas. Baytda tilga olingan “may” zavq va jazbadir. “Zulf” nima? Tasavvufiy mohiyat bo‘yicha zulf – erishilishi bag‘oyat mushkul bo‘lgan g‘aybiy haqiqat, ishqdagi eng yuqori imkon darajasi, “mug‘bacha” – sodiq murid, chin oshiq. “Zunnor” – Yori azalga yetishmoq u-n belga xizmat kamarini mahkam bog‘lash belgisi. “Mug‘” – piri komil. “Qadah” – uning fayzi ilohiy nurlari porlagan ko‘ngli. Demak, N. ko‘zda tutgan ma’no quyidagichadir: “Ey muridi solik, mening dilimda ishq zavqini hosil qilding, endi g‘aybiy haqiqatga asir qil. Piri komil huzuriga bog‘lagilki, unga taslim bo‘lmasdan diydor talab qilmoq ham xush emasdur”. Shoir qator g‘azallarida “murshidi ishq”ni “bog‘bon” deya nomlaydiki, u ko‘ngil bog‘i va ruh gulshanining bog‘bonidir:

Topmaduq gulirang jomi bexumor, ey bog‘bon,
Vahki, bu gulshan aro gul butmas ermish xorsiz.

Irsoli masal usulida ta’kid b-n aytilgan bu gapdan muddao nima? Birinchidan, chin oshiq holi va ma’naviy-ruhiy ehtiyojini yoritish. Ikkinchidan, ishq gulshanining quruq zuhd-u taqvo sahrosi b-n aslo o‘xshash emasligini qayd etish. Uchinchidan, so‘nggi baytda umumlashtirilajak fikrga mustahkam mantiqiy asos hozirlash. Sharq she’riyatining ko‘p buyuk shoirlari qatori N. ham zuhd va zohidlik yo‘lini inkor etadi. Holbuki, tasavvufning shakllanishida zuhd maslagi sezilarli ta’sir o‘tkazgan. Ilk zohidlar ibrat olsa arziydigan bir qancha fazilat sohiblari bo‘lishgan. Lekin zohidlar erishgan yutuqlaridan mamnun bo‘lib, dunyo ishlariga qo‘l siltaganliklari sababli o‘zlarining yo‘llariga o‘zlari to‘siq qo‘yganlar.

Ahli zuhd ichra Navoiy topmadi maqsadqa yo‘l,
Vaqtingizni xush tutung, ey jam’kim, xummorsiz.

Mutafakkir shoirning so‘zlari bugun ham katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Zuhdi taqvo qachon o‘zini to‘la-to‘kis oqlaydi – qachonki, ko‘ngilda mehr-muhabbat, ruhda ilohiy haqiqat nurlari porlab, dinning botiniy ma’no va zavqlaridan yiroqlashilmasa.

Ad.: *Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2011.*

I.H.

NAVKAR *(mo‘g‘.* No‘xo‘r – do‘st, o‘rtoq; er) 1. *map.* Harbiy xizmatkor, askar. 2. *ko‘chma.* Xizmatkor, xodim. Navoiy asarlarida N. har ikki ma’nosida faol qo‘llanilgan. “B.V.” devonida “*Mutoyaba ruxsat bergan navkar bobidakim, yana ixtiloti behamiyatlig‘dur va behimmatlig‘*” nomli qit’ada N.ning fe’li, tabiati haqida shunday yozilgan:

Chu navkarga berding ijozat, yana
Kelib, qilsa xidmatqa qo‘ldoshliq,
Bil andoqki, juftunga bersang taloq,
Yana istagay qilmoq o‘ynoshliq.

“M.Q.”ning “*Tarbiyat topib, haromnamakliq qilg‘on navkarlar zikrida*” deb nomlangan 36-faslida ham N.ning xulq-atvori, burch-vazifalaridan bahs etilgan. Navoiyning yozishicha, N. boquvchi, tarbiyachi, podshohidan hurmat, izzat, e’tibor ko‘rsa, bek va egasidan, xizmat ko‘rsatadigan xo‘jayinidan tarbiyat va mehribonchilik, marhamat, yordam, iltifot, ehson ko‘rgay, unga javoban erlik va insoniylik tamoyillariga ko‘ra, qulluq va xizmatga shay, shuningdek, hamqadam va sadoqatli bo‘lishi, jonini ayamasligi lozim. Bundan tashqari, N. boshlig‘ining ma’lum bir kishiga ko‘proq e’tibor ko‘rsatayotganidan birovga shikoyat etsa, gina ko‘chasiga o‘tsa, noshukrlik bo‘lishi va odamiylikdan yiroqlashishi mumkinligidan ulug‘ shoir ogohlantiradi. Navoiyga ko‘ra, N. agar bir o‘rdadan boshqasiga qochib o‘tsa, nomardlik tuprog‘ini yigitlik boshiga sochgan bo‘ladi, bunday kimsa erlik sonidan chiqadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик, 3-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

S.O‘.

“NAVODIR UN-NIHOYA” (“Behad nodirliklar”) – N.ning 1476–1483-yy. orasida tuzgan ikkinchi rasmiy devoni. Uning 1987-y.da 20 jildlik “Mukammal asarlar to‘plami” tarkibida chop etilgan nusxasi 862 ta g‘azaldangina iborat. Holbuki, “X.M.” devonlar turkumiga yozgan debochasida N. “B.B.” devoni tuzilganidan keyin ham ko‘plab har xil she’rlar yozgani va ular borasida debochada batafsil sharh bergani haqida yozadi: “Andin so‘ngra dag‘i ul jam’u tartibdin boshqa yana har taqrib bila har nav’ abyotkim, aytilib erdi-yu, har nav’ g‘azaliyotkim, yig‘ilib erdi, ul xayol shabistonining duraxshon axtarlarin-u ul ko‘ngul maxzanining duraxshon gavharlarin dag‘i ikkinchi devonimdakim, “N.N.”g‘a mashhurdur, rabt-u tartib berib, debochasinda sharh bila aizzayi as’hob-u ajillayi ahbob xidmatlarida arz qilib erdim”. Shu debochaning davomida yana Husayn Boyqaroning xizmatlarini “burung‘i ikki devonim debochasida

sharh bila mazkur qilib erdim” deydi. Bundan ma’lum bo‘ladiki, “N.N.”ning ham debochasi bo‘lgan va faqat g‘azallardan emas, balki rang-barang she’rlardan tashkil topgan. Bu esa shoir devonining asl nusxasi qo‘lyozmasini topish ustida izlanishlar davom etishi zarurligini ko‘rsatadi. M-n, N.Mallayev “N.N.” 628 g‘azal, 3 mustazod, 3 tarje’band, 5 qit’a, 46 ruboiy, 1 lug‘z, 6 muammo, 1 tuyuqdan iborat bo‘lganligi haqida ma’lumot beradi. Uning XV asrning 80-yy.da ko‘chirilgan yagona nusxasi Toshkentda saqlanadi.

Ad.: Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т., 1976; Сирожиддинов Ш., Юсупова Д., Давлатов О. Навоийшунослик. – Т., 2018.

E.O., M.A.

“NAVODIR USH-SHABOB” (“Yigitlik nodirliklari”) – “X.M.” devonlar turkumining ikkinchi devoni. Mazkur devon shartli ravishda shoirning yigitlik davri, aniqrog‘i, 20 yoshdan 35 yoshgacha yozgan she’rlarini qamrab oladi. Albatta, “X.M.”ga kiritilgan boshqa devonlar kabi “N.Sh.”ga ham shoirning turli yoshiga mansub ijod namunalari kiritilgan. M-n, Sayyid Hasan Ardasher vafotiga bag‘ishlangan marsiyasi ham “N.Sh.”dan o‘rin olganki, ustozi vafot etgan 1488/89-yy.da N. 47–48 yoshlarda edi. H.Sulaymonning taxminiy tasnifiga ko‘ra, “N.Sh.”dan jami 759 ta she’r o‘rin olgan bo‘lib, 166 tasi yigitlik, 237 tasi o‘rta yoshlik, 356 tasi qarilik davriga mansub. Umuman, “N.Sh.”da 650 g‘azal, 3 muxammas, 1 mustazod, 1 musaddas, 1 tarje’band, 1 tarkibband, 50 qit’a, 52 muammo mavjud.

Ad.: Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2011; Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т., 1976.

E.O.

“NAVOIY” – Ozarbayjon Adabiyot jamiyati tomonidan Turkologlarning birinchi qurultoyiga bag‘ishlangan “Navoiy” maqolalar to‘plami. To‘plam hijriy-qamariy yil hisobiga ko‘ra, N.ning besh yuz yillik yubileyi munosabati b-n nashr etilgan. Undagi “Amir Alisher Navoiy” nomli eng katta maqola prof. Ismail Hikmat (5 – 71-betlar) qalamiga mansub. Maqolada N.ning tarjimayi holi, davlat va jamoat arbobi sifatidagi faoliyati ancha keng yoritilgan. Adabiy faoliyati haqida so‘z borar ekan, Lutfiy ijodi b-n bog‘liqlik, Jomiy b-n yaqin ijodiy-shaxsiy munosabatlarga to‘xtalib, yozgan asarlari to‘g‘risida ma’lumotlar keltiriladi. Biroq Yevropa sharqshunoslarining, jumladan, fransuz turkolog-olimi Fransua Alfons Belenning ta’siri ko‘rinib turgan bu maqolada N.ning shoirlik faoliyati va ijodiy merosiga biryoqlama baho beriladi, asarlarining g‘oyaviy-badiiy qimmatini, to‘la o‘ziga xoslik darajasini kamsituvchi munosabat ham seziladi.

Prof. Cho‘ponzoda to‘plamdagi maqolasida N.ning tilshunoslik sohasidagi qarashlarini tadqiq qilgan. “M.L.” asari asosida yozilgan maqolada muallif N.ni o‘z tilining otashin himoyachisi sifatidagi ijodiy-amaliy faoliyatiga to‘xtalgan.

To‘plamga Mirza Muhsin Ibrohimiyning “Fors adabiyotining Navoiyga ta’siri” nomli maqolasi ham kiritilgan. Muallif Nizomiy va N.ning, asosan, “Maxzan ul-asror” va “H.A.” asarlari bo‘yicha o‘z kuzatuvlarini bayon qiladi, ayrim tadqiqotchilar tomonidan N. dostonini oddiy va quruq “taqlid” sifatida baholash xato ekanini ta’kidlab o‘tadi. Maqola davomida “H.A.” Xusrav Dehlaviyning “Matla’ ul-anvor” va Abdurahmon Jomiyning “Tuhfat ul-ahror” dostonlari b-n ham qator belgilar bo‘yicha (qurilish, shakl, vaznlar) qiyoslanadi.

“N.” to‘plamining xos xususiyatlaridan biri sifatida Abdurahmon Jomiyning “Iskandarnoma” (“Xiradnomayi Iskandar” nazarda tutiladi) dostonida keltirilgan va mazmun jihatidan N. sha’niga madhiya qismiga tegishli Mirza Jalol Yusufzoda tomonidan nasriy va she’riy tarjimaning ilova etilganini ko‘rsatish mumkin. Qisqasi, N. hayoti va ijodiga bag‘ishlangan bu to‘plam o‘zbek n.shunosligining fan sifatida shakllanishi va rivojida alohida ahamiyatga ega.

Ad.: *Навоий (мақолалар тўплами). – Боку, 1926.*

A.A.

NAVOIY IJODINING XX ASR RUS TURKOLOGIYASIDA O‘RGANILISHI – rus turkologiyasida o‘zbek mumtoz adabiyotiga qiziqish va ilmiy munosabatning shakllanishida XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi ijtimoiy omillar muhim rol o‘ynadi. O‘zbek ma’rifatchilik adabiyotining rivoji, rus-o‘zbek madaniy-adabiy aloqalari, XX asr boshi davriy matbuoti, dastlabki ilmiy muassasa va jamiyatlar ikki xalq adabiyotshunosligining o‘zaro aloqadorlikda taraqqiy qilishiga keng imkoniyat yaratdi.

G‘arb adabiyotida XVII asrdayoq N. ijodi haqidagi dastlabki ma’lumotlar paydo bo‘la boshlagan. Davralarda shoir she’rlaridan namunalar o‘qish, falsafiy baytlarini tahlil qilish tez-tez kuzatilgan. 1841-y.da fransuz sharqshunosi M.Katremer G‘arbda ilk bor N.ning “M.L.” va “T.M.A.” asarlarini nashr qildiradi. Aynan shu davrdan boshlab Rossiya kutubxonalarida, qo‘lyozma fondlarida ham N. asarlari to‘plana boshlaydi va asr oxiriga kelib shoir asarlarining, deyarli, barcha qo‘lyozmalari yig‘iladi. 1855-y.da Sankt-Peterburg universiteti tarkibidagi Sharqshunoslik bo‘limi maxsus qaror bilan Sharqshunoslik fakultetiga o‘zgaradi. N. asarlari o‘quv rejasiga kiritilib, o‘qitila boshlanadi. Bu harakatlarning samarasida anchadan beri shoir ijodini o‘rganayotgan universitet tolibi Mixail Nikitskiyga *“Amir Nizomiddin Alisher: davlat arbobi va shoir sifatida”* nomli magistrlik dissertatsiyasini yozish topshiriladi. Ko‘p o‘tmay bu tadqiqot yuzaga chiqadi va 1856-y.da Sankt-Peterburg Fanlar akademiyasi nashrida chop etiladi. 1857-y.da prof. I.Beryozin tomonidan ilk bor turkiy adabiyot bo‘yicha darslik yaratiladi va unga N. asarlaridan ham parchalar kiritiladi.

Mixail Nikitskiy o‘zigacha Yevropa adabiyotidagi tadqiqotlarni, shuningdek, shoir yashagan yaqin davrlarda yaratilgan forsiy va turkiy manbalarni sinchiklab o‘rganadi, ulardan unumli foydalanadi va adabiy-ilmiy jamoatchilikni N. ijodining eng muhim qirralari bilan tanishtiradi.

Nikitskiy o‘z tadqiqotida rus sharqshunosligida birinchi bo‘lib N.ning serqirra faoliyatini imkon qadar yoritishga harakat qilgan tadqiqotchidir. Bu dissertatsiya keyingi ishlarga asos manba bo‘lib xizmat qilgani hamda rus n.shunosligini boshlab bergani b-n ham alohida qimmat kasb etadi.

Ancha tanaffusdan keyin (1856–1926), XX asrning 20-yy.idan boshlab rus n.shunosligi yana rivojlana boshlaydi va asrning birinchi yarmigacha N.ning ilmiy-ijodiy faoliyati aks etgan bir qancha to‘plamlar, monografiyalar, maqolalar nashr etiladi. XX asr rus n.shunosligini shartli ravishda to‘rtta yo‘nalishda o‘rganish mumkin. Bular umumiy xarakterdagi ishlar, shoir asarlari alohida o‘rganilgan tadqiqotlar, fehrist-ko‘rsatkichlar va taqrizlar bo‘lib, Y.E.Bertels, V.V.Bartold, N.Samoylovich, S.L.Volin, A.A.Semyonov kabi olimlarning izlanishlarida aks etdi. N. asarlarining aslligini isbot qilishda Y.E.Bertels tadqiqotlari alohida o‘rin egalladi. Y.E.Bertels o‘zigacha bo‘lgan n.shunoslarning N. fors adabiyotining taqlidchisi, degan qarashlarini eng katta “metodologik xato” deb baholadi. Uning “Navoiy va Attor” maqolasi bu xato fikrga uzil-kesil nuqta qo‘ydi. Umumiy estetik asosga ega bo‘lgan turli xalq adabiyotlarining qiyosiy tahlili olimga turkiy adabiyotning o‘ziga xoslik darajasini aniqlashga yordam berdi.

N.ning hayoti va ijodi, adib yashagan davrdagi siyosiy, ijtimoiy, adabiy muhit, masalaning o‘rganilishiga doir ilmiy ishlarda rus turkologlari eng umumiy, xarakterli jihatlarni yoritishga harakat qilganlar.

A.K.Borovkov N. merosining o‘rganilishiga doir maqolasida n.shunoslik o‘tmishi va istiqboli haqida to‘xtaladi. Maqola avvalida N. yashagan davr, adib ijodining xalqchilligi, qardosh xalqlar adabiyotiga ta’siri, N. asarlariga tuzilgan lug‘atlar haqida qisqacha ma’lumot beriladi. Keyin olim M.Katremer, M.Nikitskiy, M.Belen, E.Blo-she tadqiqotlari, 1926-y.da Boku adabiy jamiya-

ti tomonidan nashr qilingan “Navoiy” to‘plami xususida to‘xtaladi. 1948-y.da Y.E.Bertels N. ijodining tadqiqi yuzasidan maxsus maqola yozadi. Maqola boshida N. asarlarining o‘rganilishida uning o‘z davridayoq tuzila boshlagan va XX asrga qadar davom etgan lug‘atlarning ahamiyati haqida fikr bildirilgan. Olim N. asarlarining Yevropaga tarqalish tarixi haqida to‘xtaladi. Y.E.Bertels o‘z kuzatishlari asosida Yevropada mashhur bo‘lgan, 1597–1766-yy. davomida o‘n bir marta nashr qilingan Xristofor asarining ikkinchi qismi N.ning “S.S.” dostonidagi voqealar tavsifiga to‘la mos kelishini ma’lum qiladi. Olimning “Shoh Sarandipning uchta navqiron o‘g‘li sarguzashtlari” deb nomlangan bu asarni N. asari bilan qiyoslashi XVI asrdayoq ulug‘ shoir asarlari Yevropaga kirib borganini isbotladi.

Y.E.Bertels N. ijodining o‘rganilishini 3 bosqichga ajratadi va har bir bosqichning xarakterli xususiyatlarini ochib beradi.

M.Katremer, M.Belen, E.Bloshe, I.Beryozin, M.Nikitskiy, V.V.Bartold kabi fransuz va rus olimlarining tadqiqotlari birinchi bosqichni tashkil qiladi. Bu ilmiy izlanishlarning aksariyati N.ni forsiy adabiyot tarjimoni, asarlarini esa taqlidiy asar sifatida tahlil qilishdan iborat.

1926-y.da Bokuda o‘tkazilgan turkologlar qurultoyida N.ning hijriy-qamariy yil bo‘yicha (845–1385) 500 yilligini nishonlash haqida qaror qabul qilinadi. Bu qaror adib ijodiy merosini o‘rganishning ikkinchi bosqichini boshlab beradi. 1926-y.da Bokuda “Navoiy”, 1928-y.da Sankt-Peterburgda “Mir Alisher” kabi ilmiy to‘plamlar nashr qilinadi. Olimning ta’kidlashicha, N.ning 500 yilligini nishonlash haqidagi hukumat qarori uchinchi bosqichga yo‘l ochib berdi. 1938–1939-yy.dan boshlab, N. merosiga qiziqish yanada kuchayadi, 1940-y.da “O‘zbek adabiyotining asoschisi”, 1946-y.da “Alisher Navoiy” to‘plamlari nashr qilindi.

Maqola oxirida Y.E.Bertels N.dek daho ijodkor merosini o‘rganish doimiy jarayon ekani, shuning u-n uning merosini o‘rganib bo‘ldik, deyishga hali ertaligi, lekin aynan shu yilda n.shunoslik u-n mustahkam zamin hozirlangani va yosh mutaxassislar tarbiyalanganini alohida qayd etadi.

V.Bartold “Mir Alisher va siyosiy hayot” nomli tadqiqotida N.ning tarixiy biografiyasini qo‘lyozma manbalar asosida yoritib beradi. Tadqiqot “Eroniylar va turkiylar”, “Hirot va uning ahamiyati”, “Mir Alisher va Sulton Husayn”, “Mashaqqatli yillar va saltanat tanazzuli”, “Mir Alisher Navoiyning bolaligi va yoshligi”, “Mir Alisher umrining oxirgi yillari” kabi fasllardan tashkil topgan. V.V.Bartold, asosan, tarixiy biografik ma’lumotlarni bayon qiladi, u shoirning adabiy-estetik qarashlariga, deyarli, to‘xtalmaydi. Monografiyadan N. hayotining eng mayda detallarigacha axborot olish mumkin. Bu ma’lumotlar shoir ilmiy biografiyasini yaxlit tasavvur qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

N.ning hayoti va ijodini, badiiy asarlarining poetik xususiyatlarini, o‘zaro adabiy ta’sir masalalarini maxsus o‘rgangan N.Samoylovich, Y.E. Bertels, N.Kononov, M.Sale ilmiy izlanishlari ham rus adabiyotshunosligining muhim qirrasini namoyon qiladi.

Bu borada N.Samoylovich asarlari alohida o‘rin tutadi. Olimning arxivida N. merosiga doir ko‘plab manba va ma’lumotlar, shoir asarlari tavsifi yuzasidan bajarilgan ishlar saqlanadi. U rus adabiyotshunoslari orasida birinchi bo‘lib N. tuyuqlari haqida axborot berdi. Olim Bobur she’rlarini nashr qilish barobarida, N. tuyuqlariga ham e’tibor qaratgani, shu munosabat bilan Sankt-Peterburgda mavjud shoir qo‘lyozmalaridan 16 ta tuyuqni topib, tarjima qilganini ma’lum qiladi.

N. asarlarining tadqiq qilinishida 1948-y. N.Kononov tomonidan tayyorlangan “M.Q.”-ning ilmiy-tanqidiy matni alohida ahamiyat kasb etadi. Xuddi shu yili Y.E.Bertelsning “Navoiy” nomli monografiyasi ham nashr qilinadi. Monografiyada “M.Q.” va “Xamsa” dostonlariga ham maxsus fasl bag‘ishlangan. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, asarning eng qadimgi qo‘lyozma nusxasi ham Y.E.Bertels sa’y-harakati bilan topilgan, fan uchun asrab qolingan. A.Hayitmetov bu kabi tadqiqotlarning istiqboli haqida: “X.” N.

ijodining eng katta yutug‘i bo‘lishi bilan birga, uning yuzaga kelishi faqat o‘zbek adabiyotidagina emas, jahon adabiyoti tarixida buyuk voqeadir. N. va jahon adabiyoti mavzusi nisbatan yangi soha bo‘lib, bugungacha sanoqligina ishlar amalga oshirilgan. Bizningcha, bu masala eng jiddiy, kelajagi porloq masalalardan biri bo‘lib, yangidan yangi tadqiqotchilarni kutmoqda”, – deb yozgan edi.

Y.E.Bertels N.ning har bir dostonini Nizomiy va Dehlaviy dostonlariga qiyosan o‘rganadi. Misollarda va rus tiliga tarjimada ularning xarakterli xususiyatlarini ochib beradi. XX asrning birinchi yarmida N.ning qo‘lyozma asarlari tavsifiga bag‘ishlangan 2 ta fehrist-ko‘rsatkich nashr qilingan. A.A.Semyonov N.ning O‘zbekiston milliy kutubxonasida mavjud qo‘lyozma asarlariga, S.A.Volin Sankt-Peterburg kutubxonalaridagi manbalarga tavsif beradi. Bu mualliflardan ancha oldin N.Samoylovich ham N. qo‘lyozmalari tavsifiga bag‘ishlangan maqola yozgan, ammo nashr qilinmagan. Unda N.ning barcha nazmiy va nasriy asarlariga qisqacha tavsif berilgan hamda rus va chet el sharqshunosligida o‘rganilishi borasida muhim ma’lumotlar keltirilgan.

A.A.Semyonov fehrist-ko‘rsatkichida N. asarlari ko‘chirilgan yiliga qarab, alifbo tartibida joylashtirilgan. Muallif ilmiy-tanqidiy matn tayyorlashda eng qadimgi, shoir yashagan davriga yaqin qo‘lyozmalarning muhim ahamiyatga ega ekani, shuning u-n N. asarlarini xronologik ketma-ketlikda keltirganini ma’lum qiladi.

S.A.Volin fehrist-ko‘rsatkichi Rossiya Milliy kutubxonasi, Sankt-Peterburg davlat universiteti Sharqshunoslik kutubxonasi va Osiyo muzeyi (hozirgi RFAga qarashli Qo‘lyozmalar instituti) kutubxonasida mavjud bo‘lgan N. asarlari qo‘lyozmalari asosida tayyorlangan. S.A.Volinning qayd qilishicha, Sankt-Peterburg kutubxonalarida N. asarlarining 77 ta, O‘zbekiston kutubxonalarida 200 ta qo‘lyozma nusxasi saqlanadi. S.A.Volin fehrist-ko‘rsatkichi hozir ham Rossiya va chet el n.shunoslari u-n muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

N. ijodiy merosining o‘rganilishida rus turkologlari yozgan taqrizlar ham muhim ahamiyat kasb etgan. Chunki bu taqrizlarda n.shunoslikning o‘ziga xos tomonlari: kamchiliklari, yutuqlari va istiqboli haqida mulohaza yuritilgan. Shu ma’noda ularni XX asr birinchi yarmi rus n.shunosligining “oynasi” deyish mumkin. Bu taqrizlar muayyan bir tarixiy davrda N. ijodi bo‘yicha qilingan ishlar, ularning mazmun-mohiyati, bahosi haqida ma’lumot beradi.

Xulosa qilib aytganda, XX asr rus adabiyotshunosligida o‘zbek mumtoz adabiyotining o‘rganilishini tadqiq qilish jarayonida umuminsoniy qadriyatning uzviy qismi bo‘lmish o‘zbek adabiyotining adabiy-estetik qiymati, eng asosiysi, N. kabi mutafakkirlar yaratgan o‘lmas asarlari faqat o‘zbek millatining emas, balki jahon madaniyati, adabiyotining bebaho durdonasi ekanini yaqqol ko‘rsatadi.

Ad.: *Боровков А.К. Изучение жизни и творчества Алишера Навои // Сборник статей. – Т., 1940; Родоначальник узбекской литературы // Сборник статей. – Т., 1940; Алишер Наваи // Сборник статей.– Москва–Ленинград. 1946; Бартольд В.В. Мир Али Шир и политическая жизнь // Сб Мир Али Шир. – Л., 1928; Самойлович Н. Четверостишие туюги Наваи // Мусульманский мир Петрогр. 1917. вып; Алишер Навои. “Махбуб ул-кулуб” // Критическое издание текста подготовил Н.Кононов 1948; Салье М.А. Текст, перевод, исследование два малоизвестных произведения Алишера Наваи. – Т., 1945; Бертельс Е.Э. Навои. Опыт творческой биографии. – М., 1948; Семенов А.А. Описание рукописей произведений Навои хранящихся в Государственной публичной библиотеке Узбекистанаср – Т., 1940; Волин С.А. Описание рукописей Навои в Ленинградских собраниях // Сб. Алишер Навои. – М.-Л., 1946; Архив Н.Самойловича Список сочинений Наваи указанием изданий и опыт библиографии // РНБ. 12. Бертельс Е.Э. Избранные труды Наваи и Джами – М., 1965;*

Ҳайитметов А. “Хамса” ва жаҳон адабиёти. Темурийлар даври ўзбек адабиёти. – Т., 1996.

G.X.

NAVOIY IJODINING XORIJDA O‘RGANILISHI – Manbalardan ma’lumki, G‘arb adabiyotshunoslari N. hayoti va ijodiga XVI asr-dayoq, to‘g‘rirog‘i, shoir vafotidan 50 yilcha keyin qiziqish bildira boshlashgan. Jumladan, tabrizlik arman yozuvchisi Xristafor Armaniyning “Sarandip shohi uch yosh o‘g‘lonining ziyorati” asari Xusrav Dehlaviyning “Hasht bihisht” va N.ning “S.S.” dostonlari asosida yaratilgan va 1583-y.da nemis, 1719-y. fransuz, 1766-y.da golland tillariga o‘girilgan, XVIII asrga qadar ko‘p marta nashr qilingan. Kitob chop qilinganda, Volterning zamondoshi, tanqidchi Lui Mari Stanislas Freron Xristafor Armaniyni ko‘chirmachilikda ayblagan edi. Sharqshunos olim Y.E. Bertels esa bu masalaga boshqacharoq yondashib, arman adibi syujetni N. “X.”sining “S.S.” dostoni hikoyatlaridan erkin tarjima yo‘li bilan o‘zlashtirganini isbotlab beradi.

Fransuz sharqshunosi Bartalemi de Erbelo de Molenvil “Sharq kutubxonasi yoki Sharq xususidagi zaruriy bilimlariga oid hammabop lug‘at” (La Bibliotheque orientale. Parij, 1697-y.) nomli qomusiy kitobning 99-sahifasiga “Alisher” (“Alicher”) maqolasini kiritgan. Shuningdek, mazkur qomusning 661-sahifasida “Navoiy” (“Nevai”) sarlavhasi ostida N. “X.”si xususida ma’lumot keltiriladi. Markaziy Osiyoda X – XII asrlarda yashab ijod etgan ulug‘ siymolar haqidagi kitob 1776-y.da A.Maystrixt tomonidan nemis tiliga o‘girilgan. 1777–1779-yy.da bu kitob 4 jildli, 1781–1783-y.da 6 jildli holida ikki-uch marta qayta nashr etilgan. Bartalemi de Erbelo de Molenvilning fransuz tilidagi qomusidan farqli o‘laroq, N.ning hayoti va ijodini batafsilroq tasvir etib beruvchi tadqiqot boshqa bir olim Yozef fon Xammer-Purgshtal tomonidan yaratildi. Bu uning nemis tilida chop etilgan “Nafis fors nutq san’ati” (Vena, 1818) kitobidan joy olgan. 1841-y. Parijda N.ning G‘arbdagi ilk noshirlardan biri sanalgan fransuz sharqshunosi Eten Kartmer “M.L.” va “T.M.A.” asarlarini (qisqartirilgan holda) “Sharqiy turk adabiyoti xrestomatiyasi” kitobida chop qildirdi.

Sharqshunos olimlar qatorida Fransua Alfons Belen (1817–1877) nomi alohida e’tirof etiladi. “Alisher Navoiy tarjimayi holi va adabiy hayotiga oid ma’lumotlar, uning asarlaridan olingan parchalar ilovasi bilan” (“*Notice biographique et littéraire sur Mir Ali-Chir Nevaii, suivie d’extraits tirés des œuvres du même auteur*”) maqolasi olimning N. haqidagi tadqiqotlarining dastlabkisidir. Fransuz tilidagi mazkur maqola 1861-y. “Journal Asiatique” (Osiyo jurnali)ning 17-sonida e’lon qilingan. Tarjimonning asardagi obrazli iboralar, maqol, matal va hikmatlarni asliyat mazmuniga monand ravishda o‘girishga uringani seziladi. Ikki bo‘limdan iborat mazkur tadqiqotning birinchisida N.ning hayoti va ijodi haqida fikr yuritilgan bo‘lib, ikkinchisida “M.N.” va “X.M.” asarlaridan parchalar asl nusxada (ya’ni, arab imlosiga asoslangan eski o‘zbek yozuvida) va fransuz tilidagi tarjimalari b-n o‘quvchilar hukmiga havola etilgan. 1866-y.da “Sharq donolari” turkumida yozilgan “Mir Alisher Navoiyning fazilatlari, estetik va falsafiy qarashlari” (“Caracteres, maximes et pensees de Mir-Ali-Chir Nevai”) nomli ikkinchi maqolasida olim “M.Q.”ni birmuncha tahlil qilgan, shuningdek, kitobning o‘ziga maqbul boblarinigina fransuzchaga o‘girgan. Tarjimaning asosiy fazilati ularga yozilgan 90 dan ortiq izohlarda o‘z aksini topgan.

O‘tgan asr boshida 1900-y.da nashr etilgan Sh.Sheferning “Arab, fors va turkiy tillardagi qo‘lyozmalar majmuasi katalogi”da N. qalamiga mansub asarlarning 16 ta qo‘lyozma nusxasiga tegishli ma’lumotlar keltirilgan. Edgar Bloshe esa “Milliy kutubxonada saqlanayotgan turkiy qo‘lyozmalar katalogi” (“Les enluminures de manuscrit orientaux de la Bibliotheque National. Paris” 1926) maqolasida N.ning 35 ta qo‘lyozma nusxasini tavsif etgan. Umuman olganda, hozirda N.ning 240 ming misradan iborat nazmiy asarlari

va nasriy durdonalari Yevropa kutubxonalarida saqlanishiga doir ma'lumotlar bir qator manbalardan ma'lum. Parij Milliy kutubxonasi, Kanadadagi Toronto dorulfununi, Vena Qirollik kutubxonasi, Venger Fanlar akademiyasi, Britaniya muzeyi, Berlin, Venetsiya, Oksford universitetlari kutubxonalarida N. merosidan "X."ning to'liq holdagi va mazkur asar tarkibidan o'rin olgan to'rt dostonning alohida ko'rinishdagi, "X.M."ning to'liq, shuningdek, to'rt devonning ko'plab qo'lyozma nusxalari, turli davrlarda ko'chirilib, tanlangan she'rlar va kulliyot tarzida tartib berilgan to'la qo'lyozma asarlari hamda "L.T.", "M.N.", "N.M.", "T.M.A.", "M.L.", "M.A." "D.F."larning ko'p nusxali qadimiy qo'lyozmalari saqlanadi. Bundan tashqari mazkur asarlar asosida tuzilgan ahamiyatli "Ma'bani lug'at" va uning nemis va fransuz tilidagi tarjima nusxalari, "Badoye' ul-lug'at", "Abushqa", "Lug'ati chig'atoyi va turki usmoni", "Kitob ul-lug'at", "Ussi lisoni turki" va boshqalar ham G'arb kutubxonalaridan o'rin olgan. N.ga tegishli 28 ta mustaqil asarning qo'lyozmalari G'arbiy Yevropa ilm ahli u-n hozirgacha ishonchli manba hisoblanadi. Ular orasida N. hayotligida ko'chirilgan va ulkan ilmiy qimmatga ega nusxalar ham mavjud.

Uzoq yillar London va Kembrij universitetlarida arab-fors tillaridan saboq bergan, shuningdek, Britaniya muzeyida ishlagan shvetsariyalik sharqshunos olim Sharl Per Anri Re o'z faoliyati davomida ingliz sharqshunos olimi Uilyam Kyureton (1808–1864) tomonidan boshlangan "Sharq qo'lyozmalari katalogi"ni 1894-y.da tugallash b-n birga o'zining "Turk qo'lyozmalari katalogi"ni ham 1888-y.da nashr qildirdi. Ularda Britaniya muzeyidagi N. asarlari qo'lyozmalari tavsifi keltirilgan. G'arbning ko'zga ko'ringan yana bir sharqshunosi Yan Shmidt "Manchester Jon Raylends universiteti kutubxonasidagi turk qo'lyozmalari katalogi" tarkibidagi "Islomiy qo'lyozmalar va kitoblar"ning 2-jildida ("Islamic Manuscripts and Books" Volume 2) N. "X."si qo'lyozmasiga tegishli izohlarni XV asr nodir qo'lyozmalari qatorida taqdim etgan. Mazkur nashrda buyuk shoir hayoti va ijodiga doir ma'lumotlarni ham uchratish mumkin. N. hayoti, ijodini o'rganishga jiddiy kirishgan fransuz olimi Lyusyen Buva 1902-y. Parijda bo'lib o'tgan sharqshunoslar anjumanidagi ma'ruzasida "M.L." asarining o'sha paytda yangi topilgan qo'lyozmasiga to'xtalgan. Olim 1926-y. "Osiyo" jurnalida o'zining "Temuriylar davri madaniyati haqida risola"sini ("Essai sur la Civilisation timouride") nashr qildirgan. Lyusyen Buva ushbu tadqiqotida temuriylar madaniyati, san'ati va adabiyotiga to'xtalarkan, bu davrda yashagan fors-tojik va turkiyzabon shoirlar ijodini yoritdi. Lyusyen Buva buyuk mutafakkir shoir shaxsiyatini manfaatparastlikdan yiroq kamtar va vatanparvar sifatida ta'riflaganiga qaramay, asarlarining g'oyaviy-badiiy qimmatini to'g'ri baholashga erisholmadi. U "M.Q."ni Nosir Xisravning "Saodatnoma", "L.T."ni esa Farididdin Attorning "Mantiq-ut-tayr" asarlarining taqlidi va tarjimasi, "H.A."ni turli forsiy manbalardan olingan majmuadir, deya isbotlashga urindi. Lyusyen Buva ushbu risolasini hech o'zgarishsiz 1927-y.da "Mo'g'ul imperiyasi" ("Histoire du monde. Tome VIII. L'Impire mongol. Paris, 1927") nomli monografiyasiga ham kiritgan.

Yana bir e'tiborli kitob, bu taniqli fransuz olimi va shoiri Remon Keno muharrirligida chop etilgan 2 jildli "Pleyada qomusi" ("Encyclopedie de la Pleiade. Histoire des Litteratures". – Paris, 1956.)dir. Uning 1-jildidagi M.Talbo qalamiga mansub "Turkiy xalqlar adabiyoti" bobida N.ijodiga ancha keng o'rin berilgan. M.Talbo o'z maqolasini yozishda F.A.Belen va L.Buva tadqiqotlaridan foydalangan. Remi Dor, Rem Lui Bazen, Jan-Pol Ru, Bake-Grammonlar n.shunoslik bo'yicha yirik tadqiqotlar olib borgan fransuz olimlaridir. Ular O'zbekistonda yashab, o'zbek tili va madaniyati tarixiga bag'ishlangan tadqiqotlar yaratishdi. Tilshunos olim Remi Dor rahbarligida fransuzcha-o'zbekcha va o'zbekcha-fransuzcha lug'atlar nashr qilindi. U N.ning "Mufradot" risolasini o'rganishi natijasida, "Alisher Navoiy muammolari" (Parij, 2006) nomli

tadqiqotini yozdi. Olimning bu monografiyasi fransuz sharqshunosligidagi katta yutuqlaridan biri sifatida baholanadi.

Barbara Kellner Xenkel, Yurgen Paul, Klaus Shonig, Erika Tauvbe, Klaudya Romer, Mark Kirshner, Zigrid Klaynmixel va Yoxim Girlishs kabi olimlarning tadqiqotlari orqali Germaniyada ham N. ijodiga qiziqish yuqoriligiga guvoh bo‘lish mumkin. 2003-y. Germaniyada “Alisher Navoiy” nomli to‘plamdan N. ijodi, uning shaxsiyati va temuriylar davriga oid mavzularda nemis va ingliz tillarida yozilgan ilmiy maqolalar o‘rin olgan.

Shotlandiyalik sharqshunos olim Elias Jon Uilkinson Gibb uzoq yillar sharq adabiyotini o‘rgangan. Edvard Braun tahriri ostida ingliz tilida bosmadan chiqarilgan “Turk she’riyati tarixi” kitobida (“History of Ottoman Poetry” Nachdruck London 1958-67) avstraliyalik sharqshunos, tarixchi, tarjimon Yozef fon Xammer-Purgshtalning (Hofiz Sheroziy, Nizomiy, Fuzuliy, Ibn al-Farid, Al-Mutanobbiy, Unsuriy, Boqiy singari bir qancha shoirlarning asarlarini nemis tiliga o‘girgan) ishlarida yo‘l qo‘yilgan ayrim kamchiliklar xususida to‘xtalgan. Uning ishini davom ettirish maqsadida 200 ga yaqin mumtoz adabiyot vakillarining biografiyasi, ular ijodidagi bir qancha tarjima g‘azallar, shuningdek, manbadan o‘rin olgan asarlardagi falsafiy va irfoniy qarashlari borasida o‘z fikrlarini bildirgan.

AQSH va Kanadada olib borilgan ilmiy tadqiqotlar N.ni nafaqat shoir, balki o‘z davrida qudratli davlat arbobi bo‘lganini namoyon etadi. Bu borada 1979-y.da Garvard universitetida “Husayn Boyqaro saroyidagi adabiy muhit va uning siyosiy xususiyati” degan mavzuda doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan Kanadaning Toronto universiteti professori Maria Eva Sabtelni xonimning izlanishlarini alohida ta’kidlash joiz. Sabtelni xonim Sharq adabiyotida mashhur bo‘lgan ko‘plab arab, fors va turkiy manbalar, shu jumladan, Faxri Hiraviy tomonidan forschaga o‘girilgan N.ning “M.N.”, Zayniddin Vosifiyning “Badoye’ ul-voqoye”, Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro”, Muhammad Haydar Dug‘lotning “Tarixi Rashidiy”, Som Mirzoning “Tuhfayi Somiy”, Boburning “Boburnoma”, Xondamirning “Habib us-siyar” asarlarini o‘rganish orqali Sulton Husayn Boyqaroning qirq yil davomida Hirot davlatchilik siyosatida va madaniy hayotida tutgan o‘rni, N.ning homiylik faoliyati va ma’naviy rahnamoligini ochib berishga erishgan. Bu borada matbuotda e’lon qilib borayotgan qator maqolalari olimning N. siymosiga qiziqishi anchayin yuqoriligini isbotlaydi: “XVI asr boshida Markaziy Osiyoda madaniy va siyosiy hayot” (*“Art and Politics in Early 16th Century Central Asia” // Central Asiatic Journal. 27/1–2, 1983. pp 121–148*), Islom ensiklopediyasi sahifalaridan o‘rin olgan “Mir Alisher Navoiy” (“*Ali Shir Navai: Bakhshi and Beg”// Harvard Ukranian Studies, vol.3/4, part 2. Euchaisterion: Essays presented to Omeljan Pritsak on his 60-birthday by his Colleagues and Students (1979–1980) pp 797–807*); “Alisher Navoiyning “Vaqfiya” asari tavba-tazarru yo‘lida” (“*The Vaqfiya of Mir Ali Shir Nava’i as Apologia”// Journal of Turkish Studies. Vol.15, 1991. Fahir Iz Festschrift II. Pp. 257–271*), “Temuriylar davri ta’lim va homiylik asoslari: XV asr Hirotda Alisher Navoiy “Ixlosiya” majmuasi va uning vaqf qilinishi” (“*A Timurid Educational and Charitable Foundation: The Ikhlasiyya Complex of Ali Shir Navai in 15th century Herat and its Endowment” // Journal of the American Oriental Society, vol.111, #1, (Jam-Mar. 1991), pp. 38–61*) singari ilmiy maqolalari shular jumlasidandir. Shuningdek, Kaliforniya universiteti (AQSH) professori Mark Tuton 2014-y.da N. “X.”si bo‘yicha doktorlik ishini himoya qilishda Sabtelni xonim singari katta muvaffaqiyatga erishdi.

Massachusetslik adabiyotshunos, yozuvchi va shoir Dennis Deyli ko‘p yillik izlanishlari tufayli N. g‘azallaridan bir qanchasini ingliz tiliga o‘girgan. Uning “Cervena Barva Press” nashriyoti tomonidan chop qilingan “Alisher Navoiyning yigirma bir g‘azali” (“*Twenty-One Ghazals” Alisher Navoiy, translated from the Uzbek by*

Dennis Daly") kitobi AQSHda iliq kutib olindi. Amerikaning ko‘plab adabiyotshunoslari mazkur asarga o‘z fiklarini matbuot va elektron nashrlar orqali bildirishgan. Jumladan, mamlakatning ko‘zga ko‘ringan shoiri va adabiy tanqidchisi Judi Kats-Levin *The Boston Area Small Press and Poetry Scene* blogida 2017-y.ning 30-iyunida tarjima asarga taqrizini e’lon qildi (*Twenty--One Ghazals Alisher Navoiy, Translated from the Uzbek by Dennis Daly-Reviewed by Judy Katz-Levin*). Unda Judi Kats-Levin shoir shaxsiyati-yu she’rlariga yuksak baho berib, o‘ziga xos nodir iste’dod sohibi bo‘lganini ta’kidlagan. Shu taxlit fikrlar amerikalik islomshunos olim Barri Xobermanning "Saudi Aramco World" jurnalida nashr qilingan "Turklarning Choseri" ("Chaucer of Turks") maqolasida ham uchraydi. U N.ni Sharq Uyg‘onish davri asoschilaridan biri sifatida ta’riflab, mumtoz adabiyotdagi roli va ta’sirini ingliz shoiri Jeffi Choserga qiyoslagan. Harri Dik esa O‘zbekistonga kelib "L.T."ning nasriy bayonini ingliz tiliga tarjima qilgan. U N.ni "*Dunyoni ma’naviy tanazzuldan qutqara oladigan ko‘ngil bog‘ining bog‘boni*", deya e’tirof etadi. Bunga qadar Umar Xayyom ruboiylarini inglizchaga o‘girib, mashhurlikka erishgan ingliz shoiri Edvard Fitsdjerald "L.T."ning nazmiy versiyasini inglizchaga tarjima qilgani va bu asar 1899-y. da Bostonda bosilgani borasida ma’lumotlar uchraydi. Mutarjim haqida Farididdin Attorning "Mantiqut ut-tayr" asarini 4500 misradan 1500 misraga qadar qisqartirgan holda o‘girgan, degan qaydlar ham bor. Edvard Fitsdjerald "Mantiq ut-tayr"ning ingliz tilidagi tarjimasini "Qushlar mashvaratidagi qush nigohi" ("A Bird’s-Eye view of the Bird Parliament") deb atagan.

N. asarlarini tarjima qilgan xorijlik mutarjimlar qatoriga N. g‘azaliyotini polyak tiliga o‘girgan Yanush Kjijovskiyni, "F.Sh." dostonini ukrain tilida taqdim etgan shoir Nikolay Bajanni, Vengriyaning ko‘zga ko‘ringan Europa Kiadó nashriyoti orqali 1966-y. "F.Sh."ni vengercha-da to‘liq holda bosmadan chiqargan Andrashni, shuningdek, dastlab "Qaro ko‘zim" radifli g‘azalni fransuzchaga o‘girib, "G‘azallar va boshqa poemalar" (Alicher Navoi. Gazels et auteres poems. – Paris: Orphee/La Difference, rr.1991-127) nomli tarjima to‘plamini chop ettirgan Jan-Pyer Balfni kiritish mumkin.

N.ning ajoyib lirikasi, chuqur falsafiy fikrlari, inson tafakkuriga ta’sir etadigan yorqin poetik obrazlari va tasviriy vositalari turk shoir-yozuvchilari va olimlarining e’tiborini o‘ziga jalb etib kelgan. M-n, N.S.Banarli N. ijodini juda yuqori baholarkan, uning ta’siri Ahmad Poshsho, Sulton Salim, Nodim ijodida sezilishini o‘zining "Resimli Türk Edebiyatı Tarihi" kitobida bayon etgan va "Navoiy faqat Markaziy Osiyo emas, butun turkiy xalqlar adabiyotining buyuk vakilidir. U o‘z davri va undan so‘ng ham ijodkorlar u-n ideal bo‘lib qoladi. Navoiydek yozish har bir shoirning orzusi edi", deya yuksak baho bergan.

Turk adabiyotshunoslaridan biri F.Ko‘prulu 1934-y.da Istanbulda e’lon qilingan "Turk tili va adabiyoti ustida tadqiqotlar" kitobining "Alisher Navoiy va adabiy ta’sir" mavzusidagi izlanishlarida turk shoirlari ijodida N. she’riyati, qarashlari va fikrlari nechog‘lik ta’sir ko‘rsatgani xususida bahs yuritadi. Keyinchalik ham turk adabiyotshunoslari N. ijodini o‘rganishga katta qiziqish bildirib, o‘z izlanishlarini davom ettirishdi. M-n, 1970-y.da Kamol Eraslan N.ning "Nasoyim ul-muhabbat min shamoyimil futuvvat" asarining matn va til xususiyatlari" nomli doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi.

N.shunos olim Ogoh Sirri Levend 4 jildli N. tanlangan asarlarini nashr etgach, 1965-y.da "Alisher Navoiy" nomli risolasini yozdi. "O‘rta Osiyodagi vaziyat: turkiy va forsiy tillarning adabiy til sifatida tarqalishi"; "Navoiyning bolalik, yigitlik, keksalik davrlari"; "Alisher Navoiyning devonlari, Jomiy va Navoiy munosabatlari"; "Navoiy "Xamsa"si xususida: nazira, javob tarjima"; "Xamsa" tarkibiga kiruvchi dostonlarning o‘zidan oldingi salaflarining asarlari b-n qiyosiy tahlili"; "Navoiy va adabiy til", "Navoiy va Hirot", "Navoiy va ishq"; "Navoiyning devonlari va Xamsa" kabi bo‘limlardan iborat mazkur riso-

laning kirish qismida olim Turkiyada N. hayoti va ijodining o‘rganilishi borasidagi dastlabki tadqiqotlar haqida so‘z yuritadi. U o‘z tadqiqotlarini Sulaymoniya kutubxonasidagi Fotih bo‘limida saqlanayotgan 4056-raqamli N. kulliyotini o‘rganishdan boshladi. Darvesh Muhammad Toqiyning qalami b-n bitilgan Turkiyaning “Revan” kutubxonasidagi 808-raqamli kulliyot ham olim izlanishlarining muvaffaqiyatida g‘oyat katta rol o‘ynagan. Mazkur qo‘lyozma Hirotda 1496–97-yy.da ko‘chirilgani b-n bebahodir. Bu qo‘lyozmaning fotonusxasini O‘zbekistonga olib kelgan prof. H.Sulaymon: “Sulton Husayn kutubxonasining mahoratli peshqadam xattotlaridan bo‘lgan Darvesh Muhammad Toqiy ko‘chirgan kulliyotning mazkur qo‘lyozmasini N. ko‘rganiga shubha yo‘q. Chunki u shoirning o‘zi tuzgan kulliyot nusxasi va unda N.ning o‘zi yozgan so‘zboshi, ya’ni “Munojot”i bor, deya ta’kidlagan edi.

Shuningdek, 2006-y.da o‘zbek tiliga tarjima qilingan turkiyalik yana bir adabiyotshunos Yusuf Chetintog‘ning “Alisher Navoiyning usmonli turk she’riyatiga ta’siri” nomli kitobi Turkiyada N. ijodiga ehtiromning naqadar yuksakligini ifodalaydi.

Ad.: *Belin F.A. Notice biographique et littéraire sur Mir Ali-Chir Nevaii, suivie d’extraits tirés des œuvres du même auteur // Journal Asiatique. № 17. 1861; Belin F.A. Moralistes orientaux. Caractères, maximes et pensées de Mir Ali Chir Névâii // Journal asiatique. № 7, 1866; Холбеков М. Парижнинг Миллий кутубхонасида сақланаётган шарқ қўлёзмалари каталоги. // Ўзбек тили ва адабиёти, 1985. 5-сон; Сотимов У. “Инкордан иқроргача” Урганч – 1994.*

Sh.R.

NAVOIY VA INTERNET NASHRLARI – Bugun jahonning ko‘zga ko‘ringan bir qator internet nashrlarida N. ijodi va hayoti b-n bog‘liq ma’lumotlarni topish mumkin. Aytish joizki, ularda N.ning rus, ingliz, nemis, venger va boshqa ko‘plab tillarga o‘girilgan lirik va epik asarlari kiritilgan. Quyidagi saytlar orqali kitobxon nafaqat N. asarlari matni, balki audio va video lavhalari bilan tanishish imkoniga ega:

www.iranicaonline.org, https://muse/jhu.edu, citeseerx.ist.psu.edu, https://journals.openeditionorg, https://www.questia.com, https://www.afternic.com, https://www.people-travels.com, https://www.britannica.com, https://www.advantour.com, huberlin.hosted.exlibrisgroup.com

Sh.R.

NAVOIY – ADABIYOTSHUNOS – N. ulug‘ shoir va mutafakkir, davlat arbobi va madaniyat homiysi bo‘lishi b-n birga ulkan alloma bo‘lgan. N.ning olimlik faoliyati ko‘p qirrali; adabiyotshunoslik uning eng muhim jihatlaridan biri. N. badiiy ijod b-n ilmiy tadqiqot va kuzatishlarini omixtalikda olib borgan. Tarixchi Xondamir N.ning 1469-y.dan so‘nggi serqirra faoliyati haqida “Makorim ul-axloq” asarida: “... butun vaqtini kitob iboratlarini tuzatish, ma’nolarini tekshirish, dalillar b-n isbot etish, masalalarni hal qilish, naqliy ilmlarning sirlarini va aqliy fanlarning nozik nuqtalarini topishga sarf qildi”, – deb yozadi.

N. adabiyotshunos sifatida boy meros qoldirdi. Uning adabiyotshunoslikka oid asarlarisiz o‘sha davr adabiyoti tarixini o‘rganish qiyin. O‘z davri adabiy va ilmiy hayotining markazida bo‘lgan N. barcha muhim va nozik masalalarga o‘z munosabatini bildirishga harakat qilgan.

N.ning adabiyotshunoslik faoliyati uning o‘z devoni – “B.B.”ga debocha yozishdan boshlangan. XV asrning 70-yy.da tuzilgan bu devonning debochasi Sharq adabiyotida devon tuzish an’anasi b-n bog‘liq ko‘p masalalarga oydinlik kiritish, bu masalalarga N.ning qarashlarini aniqlash, shu davr she’riyati xususiyatlarini belgilashda muhim voqea bo‘ldi.

N. keyinchalik “N.N.” devoni, “X.M.” kulliyotining 1-devoni, “S.Z.” nomli forsiy qasidalari to‘plamiga ham debochalar yozib, bu an’anani yanada davom ettirdi va chuqurlashtirdi.

N. 1491-y. XV asr shoirlari haqida ma’lumot berib, asarlaridan namunalar keltirgan “M.N.” tazkirasini yaratishga kirishdi. Ma’lumki, bu asar keyingi davrlar tazkirachiligiga ulkan ta’sir ko‘rsatdi.

XV asrda Xuroson va Movarounnahrda yashab ijod qilgan adabiyot va fan ahllari orasida Jomiyning roli g‘oyat katta bo‘lgan. Jomiy b-n eng yaqin ijodiy va insoniy munosabatlarda bo‘lgan N. ustozi haqida “X.M.” (1494) yodnoma asarini yaratdi. N. avlodlarga Jomiy haqida nihoyatda qimmatli ma’lumotlar qoldirdi, Jomiyning o‘z davri madaniy hayotida tutgan o‘rnini ko‘rsatib berdi.

Shuningdek, N. ustozlari, o‘sha davr ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida muhim rol o‘ynagan Sayyid Hasan Ardasher va Pahlavon Muhammad haqida ular vafotidan so‘ng “H.S.H.A.” (1490-1491), “H.P.M.” (1493) asarlarini yaratdi. N. adabiyotshunoslikka oid asarlarida badiiy asarlarga baho berishda shakl va mazmun birligiga, mahorat va til, adabiyotning nazariy masalalarini ishlashga katta e’tibor bergan. N.ning aruz vazni haqidagi “M.A.” (1492) asarining yaratilishi o‘zbek she’riyati, adabiyotshunoslik fani tarixida muhim hodisa bo‘ldi.

N. davrida she’riy janrlar nazariyasiga qiziqish kuchli edi. Muammo haqida Jomiyning to‘rt risola yaratgani ma’lum. N. ham bu mavzuga qo‘l urib, 1485-y. forsiy tilda “R.M.” (“Mufradot”) asarini yozdi. Jomiy bu risolaning yaratilishini ma’qulladi.

Ulug‘ shoir umrining oxirlarida yaratgan tilshunoslikka oid “M.L.” (1499) nomli mashhur asarida, avvalo, buyuk tilshunos olim sifatida maydonga chiqqan bo‘lsa-da, asarning adabiyotshunoslik doirasidagi ahamiyati ham katta. N. o‘zbek tilining beqiyos boyligini ko‘rsatish b-n birga o‘z davridagi adabiy hayot hodisalarini, badiiy adabiyot yutuqlarini chuqur tahlil etib, shu jarayonda o‘z ijodiy yo‘li haqida ham boshqa manbalarda uchramaydigan qimmatli ma’lumotlarni bergan. “M.L.”, “M.N.”, “X.M.” kabi asarlar N.ning fors-tojik adabiyoti tarixidan ham chuqur xabardor ekanini bildiradi. N. “M.L.”da fors-tojik shoirlarining devonlari haqida gapirib: “O‘qurig‘a davovindin bu faqir mutolaasig‘a ko‘p mashg‘ul bo‘lmag‘on devon oz erkin”, deb yozadi.

N.ning “X.” dostonlari, “L.T.” dostoni, “X.M.” devonlarida adabiyotshunoslik ahamiyatiga ega bo‘lgan ma’lumotlar ko‘p. “X.” dostonlari har birining boshlanish qismlarida xamsanavis ustozlaridan Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Jomiylar madhiga yoki o‘z “X.”sining yaratilish sabablariga to‘xtalar ekan, bunda N.ning muhokama va mulohazalari, u yoki bu ijodkorga bergan bahosi, ma’lumotlari uning chinakam adabiyot olimi ekanidan dalolat beradi.

“T.M.A.”, “N.M.”, “T.A.H.” asarlarida ham o‘zbek va fors-tojik adabiyoti tarixiga oid ma’lumotlar muhim o‘rin tutadi. “M.Q.”ning 16-fasli (“Nazm gulistonining xush nag‘ma qushlari zikri”)da mutafakkir olim adabiyot tarixini g‘oyaviy-badiiy jihatdan tasnif qilishga intiladi va uning o‘ziga xos mezonlarini bayon qiladi.

N. adabiy majlislarda faol ishtirok etib, adabiy fikr taraqqiyotiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. N. o‘tmish va o‘ziga zamondosh shoirlarning asarlarini, xalq og‘zaki ijodi namunalarini to‘plashga katta e’tibor beradi. “M.N.”da, Xalil Sultonning Amir Temur o‘rniga podshoh bo‘lganini xabar qilish b-n birga uning she’r yozganini, lekin devonini qidirib topa olmaganini ham aytadi: “Andoqkim, devoni ta’rifida Xoja Ismatulloh qasida aytibdur, ammo tilab topilmadi”. U o‘z davridagi adabiyotshunoslikka oid bir qancha asarlarning yuzaga kelishida tashabbuskor ham bo‘lgan.

N.ning adabiyotshunoslikka oid asarlari, adabiy qarashlari hozir ham adabiyot va adabiyot haqidagi fanning rivojiga xizmat qilmoqda.

Ad.: *Ғиёсиддин бинни Ҳумомиддин Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Т., 1948; Абдураҳмон Саъдий. Адабиёт олими ва танқидчиси сифатида Мир Алишер Навоий. Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1938, № 11–12-сонлар. Бертельс Е.Э. Наваи. М–Л.,*

1948; Зоҳидов В. Улуғ шоир ижодининг қалби. – Т., 1970; Ҳайитметов А. Алишер Навоийнинг адабий-танқидий қарашлари. – Т., 1959; Зоҳидов Л. Алишер Навоий ижодида муаммо жанри. – Т., 1986; Ўзбек адабиёти тарихи. 2 жилд. – Т., 1978.

Ab.H.

“NAVOIY ABADIYATI”– Guliston davlat universitetida nashr qilingan n.shunoslikka oid maqolalar to‘plami. Mazkur to‘plam ulug‘ shoir tavalludining 570 yilligi munosabati b-n 2011-y. da chop qilingan. To‘plovchi: M.Mamatqulov. Kitobdan A.Qayumov, I.Haqqul, Q.Ergashev, B.To‘ychiboyev, O.Jo‘raboyev, M.Mamatqulov, B.Rajabova, U.O‘ljaboyev, S.O‘tanova, H. Mirhaydarov, Q.Kubayev, O.Fayzullayeva kabi olimlarning maqolalari o‘rin olgan.

Ad.: *Навоий абадияти. – Т., 2011.*

Muz.M.

NAVOIYNING ABDULHAQ ABDULLAYEV TOMONIDAN CHIZILGAN PORTRETI – O‘zbekiston xalq rassomi Abdulhaq Abdullayevning portret janrida yaratgan asari. Unda N. siymosi aks ettirilgan. Portretning asl nusxasi O‘zR FA Davlat adabiyot muzeyida saqlanadi. Portret matoga moybo‘yoqda chizilgan. Musavvir shoirning yoshi o‘tgan, soqollariga oq oralagan davrdagi suratini yaratgan. Suratda shoir tik turgan holatda tasvirlangan. N.ning kiyimlari tasvirida rassom an’anaviylikni saqlagan, ya’ni boshqa musavvirlar asarlarida bo‘lganidek, shoir bu portretda ham yengi kalta xil’at kiygan, boshiga salla o‘ragan, salla tepasida shoirning bosh kiyimi – taqyaning bir qismi ko‘rinadi. Shoir libosi tasviridagi an’anaviylik elementlari ranglarning qo‘llanishida, ham ko‘zga tashlanadi: suratda N. ko‘k rangli to‘n (xil’at) kiygan va oq rangli salla o‘ragan. Rassom N.ning yoshi o‘tgan davrini aks ettiruvchi portret yaratgan, lekin biz bunda shoirni qaddi bir oz egilgan, ikki qo‘li b-n hassaga tayangan holdagi tasvirini ko‘rmaymiz. Uning qomati tik. Shoir qo‘liga hassa ham ushlamagan, qo‘llarini bir-biriga qovushtirib turadi.

Rassom N.ning bu portretini Hirotning tong manzarasi fonida chizgan. Bu usuldan Kaydalov ham o‘zining mashhur asari – N. portretini yaratishda foydalangan. Suratda otayotgan tong yorug‘ida qal’a devorlari, darvozalari o‘ziga xos bir ko‘rinish kasb etadi. Shoir shaharning ana shu manzarasiga o‘ychan holatda boqib turibdi. Mazkur ko‘rinishda ramziy ma’no borligi ayon bo‘ladi. Shahar manzaralari mamlakatni, yurtni tajassum etadi. Ulug‘ shoir va davlat arbobining tong paytida bedor holatda ana shu manzaraga boqib, chuqur xayollarga berilishi uning mamlakat, davlat, xalq tashvishi b-n yashayotgani, ayni paytda ham uni ana shu kechinmalar uning ong-u shuurini band qilganidan dalolat beradi. Rassom buni shoirning yuz ifodasida ham aks ettirishga muvaffaq bo‘lgan.

Q.E.

NAVOIY ADABIY TANQIDCHI SIFATIDA – Har qanday adabiy muhitda o‘tmishda ham, hozir ham ijodkorlar, adabiyot muxlislari orasida adabiy meros, adabiy an’analar, asarlarning mualliflari yuzasidan adabiy mulohazalar, tortishuvlar yuz berishi, bu esa shu davr adabiy jarayoniga o‘z ta’sirini ko‘rsatishi tabiiy. Shu asosda adabiy tanqidchilik rivojlangan, yangi fikrlar bildirilgan, adabiyot taraqqiy etgan.

Shunday ahvolni biz XV asrda Xuroson va Movarounnahr shaharlarida ham ko‘ramiz. Xususan, N.ning Mashhad, Samarqand, Hirotdagi hayoti, ijodi uning shu shaharlardagi adabiy hayoti b-n chambarchas bog‘langanini ko‘rsatadi. N.ning tanqidiy fikrlari, avvalo, adabiy meros masalalarida ko‘zga tashlanadi. Ulug‘ shoir Abulqosim Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy, Atoiy, Sakkokiy kabi salaflari ijodini sin-

chiklab mutolaa qilar ekan, ularni tanqidiy ravishda o‘rgandi, uning “X.” dostonlari, “M.N.” tazkirasidagi bu shoirlar yuzasidan bildirgan fikrlari buning dalilidir. M-n, N. o‘zigacha “X.” yozgan shoirlar Bahrom mavzusida qalam tebratar ekanlar, uning tarixini to‘la o‘rganmaganlarini va barcha tarixiy manbalarni ko‘zdan kechirmaganlarini tanqid qilib, “S.S.” dostonida deydi:

Yana bukim, alar yozarda varaq,
Berdilar chun raqam ishiga nasaq.

Qissa ko‘praq ekanni bilmadilar,
Yana istarga sa’y qilmadilar.

Lekin N.ning adabiy tanqidchiligi ko‘proq o‘z davri adabiyotiga, ya’ni o‘zi faol qatnashayotgan adabiy jarayon ishtirokchilari ijodiga, uning yaxshi va yomon, kuchli va kuchsiz tomonlariga qaratilgan edi. N. o‘ziga zamondosh shoirlardan Abdurahmon Jomiy, Lutfiy, Ashraf, Hiloliy, Binoyi, Shayxim Suhayliy, Osafiy kabilarning ijodiga yuksak baho bergan bo‘lsa ham, umuman, o‘z zamondoshlari ijodidan qanoat hosil qilmas, ularni tinmay mehnat qilishga, mahorat cho‘qqilarini egallashga da’vat etar edi. Bu jihatdan uning “H.A.” dostonida u nafas olayotgan adabiy muhitdagi qalamkashlarning da’vosi katta bo‘lib, ijodiy ishga tayyorgarligi, umumiy bilim saviyasi, iste’dodi esa g‘oyat pastligini tanqid qilib yozgan quyidagi satrlari juda xarakterlidir:

Tab’ kaj-u borcha takallum namoy,
Nag‘ma chab-u borcha tarannum saroy.

Anglamayin so‘zda tuyuq bahrini,
Qaysi tuyuq, balki qo‘shuq bahrini.

Lafzlari bemaza, tarkibi sust,
Nosara ma’ni-yu ado nodurust.

Borchasig‘a da’viyi ma’niyi xos.
Xoslarim topmay alardin xalos.

She’rning, adabiyotning, shoirlikning qadrini yuksak bilgan N. har qanday she’r haqiqiy she’r emasligini, o‘zini shoir deb atagan barcha ham haqiqiy shoir bo‘la olmasligini chuqur tushunar va adabiy faoliyatda tanqid yo‘li b-n yaxshi shoirlarni tarbiyalab yetishtirishga katta ahamiyat berar, bu sohada o‘z zamondoshlarining kichik bir yutug‘i ham uni shodlantirib yuborar edi. N. “M.N.”da Samarqand va Hirotdagi shoirlardan Mir Hoji Sug‘d, Mirzobek, Mavlono Sa’d, Ashraf, Muhammad Ali Jaloliy, Shohiddin kabilarning ayrim baytlari va she’rlariga ijobiy baho berishi shundan.

Shu b-n birga N. o‘z tazkirasida Mavlono Qobiliy, Mavlono Xurramiy, Mir Husayn Bovardiy, Sog‘ariy kabilarning mazmunsiz she’rlarini qattiq tanqid qilishi bejiz emas. N.ga ko‘ra she’r, adabiy asar, avvalo, mazmuniga qarab baholanadi. Lekin iste’dodlarni qadrlagan N. Sog‘ariy yaxshi she’r yozganda, uni maqtashdan tortinmaydi:

“Mavlono Sog‘ariy agarchi bad she’r erdi, ammo bu matla’yi xub tushubturkim:

Chami durbori man-u abri bahor ast yake,
Nolaye zori man-u savti hazor ast yake.

Tarj.: Mening dur yog‘diradigan ko‘zim b-n bahor bulutlari birdir, Mening nolayi zorlarim b-n bulbullarning kuylashi birdir.

N.ning adabiy – tanqidiy mulohazalari uning adabiyot sohasidagi boy adabiy-nazariy bilimlariga hamda ijod sohasida to‘plagan katta tajribalariga asoslangan edi. N. Abdurahmon Jomiyning epik va lirik she’riyatiga har doim faol munosabat bildirib, tegishli bahoni bera borgan. “M.N.”ning so‘nggi sakkizinchi majlisini N. maxsus Husayn Boyqaro she’riy ijodini tahlil etishga bag‘ishlagani, unga tanqidiy qaragani diqqatga sazovordir.

N.da, albatta, o‘z davri asarlarini atroflicha chuqur tahlil etishdan ko‘ra, ularga estetik munosabat bildirish, o‘z tanqidiy bahosini bir-ikki so‘z b-n ifodalab, “yaxshi”, “ravon” yoki “yo-

mon”,”sust” qabilida fikr bildirish yetakchi o‘rin tutadi. Chunki adabiy tanqidchilikning bu davrdagi umumiy saviyasi ko‘proq shu xildagi baho va munosabatni taqozo etar edi.

Nihoyat N. o‘z tanqidchiligida adabiy asarlarga baho berish b-n cheklanmasdan, bu asarlarni yozgan mualliflarning o‘ziga, xulq-atvoriga baho berishni, yomon xislatlarga ega bo‘lgan talant egalarini keskin qoralashni ham unutmagan. Chunki, N.ning fikricha, yuksak axloqqa ega bo‘lgan kishilargina yaxshi asarlar yozishi va shoir nomiga loyiq bo‘lishi mumkin. Shu jihatdan N. adabiy tanqidchi sifatida “M.N.”da Vali Qalandar Kavsariy va Osafiyni o‘z qobiliyati va ijodiga loqayd qaragani u-n, Ashraf va Yahyo Sebakni “go‘sha ixtiyor” qilib, xalqdan uzilib yashagani u-n, Mavlono Riyoziyni manman va badxulqligi u-n, Mavlono Xusraviyni “da’voliq va buzurg manish” bo‘lgani, Xoja Abu Ishoqni “badxo‘y va mo‘takabbir”ligi, Mavlono Zamoniyni o‘zidan katta shoir (“ulug‘ kishi”)ning taxallusiga sherik bo‘lib, uning taxallusi b-n she’rlar yozgani, Mavlono Sadr Kotibiyni ichkilikka berilgani u-n tanqid qilishi juda o‘rinli bo‘lgan edi. Bu jihatdan N. Jomiyni hamma iste’dod egalariga namuna qilib ko‘rsatar edi.

N.ning adabiy-tanqidiy qarashlari uning barcha asarlarida mavjud. Umuman, N. adabiy – tanqidchiligi uning adabiy faoliyatining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. Shoirning bu sohadagi merosi uning adabiy ijodi kabi qimmatli va hamma avlodlar u-n buyuk saboqdir.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-жилд. – Т., 2011; Саъдий А. Адабиёт олими ва тадқиқотчиси сифатида Мир Алишер Навоий // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1938, №11-12; Ҳайитметов А. Алишер Навоийнинг адабий-танқидий қарашлари. – Т., 1959; Зоҳидов В. Улуғ шоир ижодининг қалби. – Т., 1970; Ғаниева С. Давр ва адабий ҳаёти кўзгуси, Сўзбоши (қаранг Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. – Т., 1961).*

Ab.H.

NAVOIY ALBOMI – Bu majmua (O‘zR FA ShI qo‘lyozma inv.2178,) N.ga nisbat berilib, “Navoiy albomi” – تالسارم yoki “Ruqaot” nomi b-n yuritiladi. Chunki u muqovalangan bayoz (albom) shaklida bo‘lib, N.ga Abdurahmon Jomiy, Xoja Ubaydulloh Ahror, Sayyid Abdulavval (Xoja Ahrorning kuyovi) va boshqalardan kelgan maktublar muayyan tartib b-n yopishtirilgan. Bu bayozlar (“Murosalot va maktubot”) haqida dastlabki ma’lumotni buxorolik tazkiranavis Sharifjon Maxdum “Asomi ul-kutub” (“Kitob ismlari”) nomli asarida beradi: “...zikr etilgan bu majmua cheksiz fayz va barakotlar maxzani, g‘aybiy nurlar (ilohiy nur) majmuasidir. Bu sharafli ruq’alar (maktublar) va tabarruk ruqaot, murosalot (o‘zaro yozishmalar) va maktubot egalarining nomlari o‘sha maktublar oxiri yoki boshida ko‘rsatilgan. Ul zotlarning o‘z mushkin qalamlari b-n yozilgandir. Mazkur maktublar Amiri Kabir (N.) qo‘llariga tekkan fursatda hammasini yig‘ib, tartib b-n ziynatlab saqlaganlar”. Bu ma’lumot haqida manbashunos Yunus Hakimjonov o‘z maqolasida (“Navoiy albomi” 1968) yozishicha: “... Bizni Sharifjon Maxdumning ma’lumoti qanday asosga suyanganligini aniqlash masalasi qiziqtirdi. Asl manbalarga murojaat qilib izlanishimiz natijasida zullisonayn shoirimiz N.ning mavlono Abdurahmon Jomiy qalamiga mansub “Nafahot ul-uns” nomli kitobining eski o‘zbek tilida qilgan tarjimasidagi bir o‘rin e’tiborimizni o‘ziga tortdi. Tarjimon tomonidan “Nasoyim ul-muhabbat” deb nomlangan qimmatli asarning Xoja Abdulloh (Ubaydulloh bo‘lishi kerak) Ahror tarjimayi holiga oid sahifasida quyidagi so‘zlarni uchratdik: “...bu haqir b-n iltifotlari ko‘p bor u-n vahiyoso (vahiyga o‘xshash) ruq’alari bila musharraf qilib, ishlariga ma’mur qilur erdi. Bu ruq’alarni muraqqa’ (kitob) yasab va unda jadval qilib, takallufot (zeb-u ziynatlab) tabarruk yo‘sini bila asrordim...”. N.ning o‘z tilidan aytilgan yuqoridagi so‘zlardan shu narsa aniqlandiki, “Murosalot va maktubot”dagi maktublarni albom sahifalariga yopishtirgan,

har bir maktubdagi imzoni kesib olib, hurmat b-n maktub tepasiga o‘rnashtirgan va albom sahifalari atrofini jadval b-n ziynatlagan shoirdan boshqa shaxs emas”. Manbashunos olim A.O‘rinboyev ta’kidlaganidek, maktublarning ko‘pida kimga yozilganligi ko‘rsatilmagan, lekin mazmun-mohiyatiga qarab shaxsni aniqlash mumkin. Maktublar ko‘proq ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy masalalar haqida yozilgan. M-n, Jomiyning N.ga yozgan xati: “Ba’d az arzi niyoz ma’ruz onki, mavlono Abdulkarim, ki dorandai ruq’ayi ixlos ast, mardi solih ast, muddati madid bo vay hamsoyagi voqe’ buda har giz az vay amre nomuloyim mushohad va mahsus nashuda ast. Iltimos onki, inoyat namuda iltifoti xotiri sharif az vay dareg‘ nadorand va dar muhimmiki ruju’ namoyad ihtimom namoyand. Tavfiq rafiq bod”. (Tarj.: Arzi niyozdan so‘ng maqsad shulki, mavlono Abdulkarim ixlos-u e’tiqodli va solih kishidir. Ko‘p yillar qo‘shni bo‘lib undan hargiz noloyiq gap yoki fe’l ko‘rmadim. Sizdan iltimos, unga inoyat qilib, xotiri sharifingiz iltifotini undan darig‘ tutmang va zarur ish yuzasidan boradi, ehtimom bersangiz. Tavfiq hamrohingiz bo‘lsin). Yoki Xoja Ahror Hirotdagi yaqinlaridan biriga maktub yozib, xat mazmunidan N.ni xabardor etishini so‘raydi. U quyidagicha: “...o‘zingiz mavlono Mir Alisher xizmatlariga borib, bu faqirni ham muborak xotiralariga tushirgach, iltimos qilsangizki, podsho Hazratlariga etkazish lozim bo‘lgan so‘zlarni hech qanday fikr-u andishaga bormasdan (Xudo roziligi u-n) yetkazsinlar...” Yana bir maktub sababi: N. davlat ishlaridan uzoqlashib, ijod b-n shug‘ullanishni o‘ziga afzal ko‘radi. Xoja Ahror N.ga maxsus (105-sonli) xat yozadi va amirlikdan bosh tortmaslikka, xalq g‘amini yeyishga chaqiradi. Chunki Xoja Ahror bilardiki, Xuroson viloyatida N.chalik xalqparvar va ilmparvar yo‘q edi. Shu b-n birga N. zamonasining eng tanilgan, ta’sirini o‘tkaza oladigan shaxslari oldidagina emas, Husayn Mirzo huzurida ham so‘zini o‘tkaza biladigan, dono maslahatlariga ko‘ndira oladigan ma’naviy kuchga ega edi. Jomiy N. nomiga Astrobodga yo‘llagan maktublaridan birida yozadi: (mazmuni) “Duodan so‘ngra, muhabbat va xususiyat tili b-n arz shulki, qudrat egasi bo‘lgan, sultonga yaqin turgan holda unga so‘zi o‘tadigan bo‘lish ulug‘ bir ne’matdir, Bu ne’matning shukronasi har bir nafasni musulmonlarning islohi u-n sarf etish, zolimlar zulmini va sarhanglar (soqchilar) zararini ulardan daf’ qilish bilan bo‘ladi... Agar bu mas’uliyat nozik tabiatingizga og‘ir kelib, sharafli xotirangizga parishonlik ro‘y bersa, u og‘irlikni bo‘yningizga olish bilan xalq uchun qilgan g‘amxo‘rligingizni taqqoslasangiz farqi nihoyatda balanddir. Boshingizga tushgan ko‘ngilsizliklarga sabr qilishingiz oqibatida sizga Alloh tarafidan rahmatlar yuzlangusidir...”

N. davrining yetuk tariqat ahli, Xoja Ahrorning kuyovlari Sayyid Abdulavval shaxsiyati va N.ga yozgan maktuboti hanuzgacha o‘rganilmagan. Shu narsa ma’lumki, u zotning maktublari bayozdan joy olishi N. huzuridagi hurmati nechog‘lik baland ekaniga dalolatdir. N. b-n Jomiy yoki Xoja Ahror va mutasavvif Abdulavval o‘rtalaridagi samimiyat, bir-birlariga nisbatan mehribonlik, fidoiylik va izzat-hurmat majmua sahifalariga yopishtirilgan maktublarda bot-bot ifodalangan. Mazkur majmua o‘zbek adabiyoti tarixi u-n qimmatli manba hisoblanib, bunda Xoja Ahrorning N.ga, Husayn Boyqaroga yozgan 122 ta, Abdurahmon Jomiyning N.ga va boshqa shahzodalarga yo‘llagan 313 ta va Sayyid Abdulavvalning N.ga yozgan 20 ta maktubi va boshqalardan tashkil topgan. Maktublar fors tilida “riqo’” xat turi b-n yozilib, xos kishilar o‘qiy olish u-n, aksar nuqtalar tushirib qoldirilgan. Shuning u-n bu maktublarni, xususan, Jomiy maktublarining o‘qilishi qiyinchilik tug‘diradi. Mazkur to‘plamni manbashunos Ibodullo Odilov ommabop-nasta’liq xatida ko‘chirgani diqqatga sazavordir. N. bayozi (“Navoiy albomi”)dan keltirilgan misollardan ko‘rinib turibdiki, bu majmua N. va zamondoshlarining o‘zaro izzat-hurmatlari va ularning shaxsiyatini chuqurroq bilishimizga xizmat qiladi.

Ad.: *Ўринбоев А., Раҳмонов А. Номаҳо ва муншаоти Жомий. – Теҳрон: 1999; Абдураҳмон Жомий. Номаҳо. – Душанбе, 1989; Садр Зиё. Тазкират ул-хаттотин, ШҚМ. Инв.1304.*

Muh.A.

NAVOIY VA ARAB TILI USTOZLARI – N. asarlarida juda ko‘p arab so‘z va iboralari ishlatilgan. Shoir asarlarida aytishicha, arab tilini 1075–1144-yy.da Xorazmda yashab o‘tgan vatandoshimiz Mahmud Zamaxshariyning to‘rt tilli arabcha-forscha-o‘zbekcha-mo‘g‘ulcha “Muqaddimat ul-adab”, hadislar sharhiga bag‘ishlangan “Al foiq fi g‘arib ul-hadis” kabi asarlari orqali o‘rgangan. Mahmud Zamaxshariy Sharqda ko‘proq Jorulloh, ya’ni Xudoning qo‘shnisi nomi b-n mashhur bo‘lgan. Uning asarlari uzoq yillar Xuroson va Turkiston madrasalarida arab tili bo‘yicha darslik vazifasini o‘tagan. Shoir “S.S.” asarining 7-bobida ushbu olim asarlarini harfma-harf o‘rganganligi haqida shunday yozadi:

Ibni Hojib demayki, Jorulloh,
Oncha tafsir ishinda yo‘q ogoh.

Tili zikri kalomi rabboniy,
Harf bar harf zabt etib oni.

N. arab tili sarf va navhini 1175–1249-yy.da yashagan Ibn Hojib (asli ismi Abu Amr Jamoliddin Usmon binni Umar) asarlaridan ham o‘rgangan. Ibn Hojibning arab tiliga oid “Qofiya” asari madrasalarda darslik vazifasini o‘tagan. Bu asar ko‘proq “Sharhi Mullo” nomi b-n mashhur bo‘lib, undan juda ko‘p kishilar saboq olganlar. Ulug‘ mutafakkir o‘zini Ibn Hojibning shogirdi hisoblaydi:

Arabiyatda dars aning virdi,
Ibni Hojib kamina shogirdi.

Shoir arab tilini, shuningdek, Qur’on oyatlari va Payg‘ambar hadislariga sharh bitgan Ibn Hajar asarlaridan ham o‘rgangan:

Ham hadis ichra sarbaland shajar,
Kim yetishmay anga yuz Ibn Hajar.

Ko‘rinib turibdiki, shoir arab tilini madrasa ustozlaridan tashqari, uch buyuk alloma Mahmud Zamaxshariy, Ibn Hojib va Ibn Hajar asarlari orqali bilgan. N. yoshligida arab tilidan olgan bilimlaridan balog‘at ya’ni, shoirlik darajasiga yetganida unumli foydalangan. Shoir asarlarida arabiy so‘z va iboralarni uch xil:

a) sof holatda: *firoq, malih, tabib, xirod, sayd, sayyod, jallod, munavvar, maqbul, markab, uryon jism, sipehr azroq, faqih axmaq, xurshid anvar, qavsi kuzah, mehrob sham’, mosivo Alloh, sohib joh.*

b) turli o‘zbekcha qo‘shimchalar b-n: *sultong‘a, g‘ussadin, zulmidin, za’fliq, sham’ini, qudrating, rahmatingdin, raqamni, labing hajridin, g‘arib ahvolima, anjum-u aflokdin, firoq hayli.*

v) *etmoq, aylamoq, qilmoq* kabi fe’llar b-n biriktirib, o‘zbek tili lug‘at tarkibini boyitdi: *jam etib, tama qilma, islom aylading, ayladi marqum, tuhmat* a*ylab, qilg‘aylar tanazzul, aylagil mabsut, etib ta’sir, faryod aylasam, mamnun aylamak, musaxxar ayladi.*

Ko‘rinadiki, shoir arabiy so‘zlarni turli shaklda ishlatib, o‘z ona tilimiz so‘z boyligini yuksak darajaga ko‘targan.

Ad.: *Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011.*

E.U.

“NAVOIY ARUZI” – taniqli sharqshunos Sodiq Mirzayevning nomzodlik dissertatsiyasi (1948). Tadqiqot N. asarlarida aruz xususiyatlariga bag‘ishlangan bo‘lsa-da, Sharqda aruz ilmi tarixi va aruz nazariyasini ishlab chiqishga asosiy e’tibor qaratilgan. Muallif shoirning har bir janrdagi she’rlarining bahrlar bo‘yicha sonini ko‘rsatish, har bir dostonning vaznini belgilash b-n cheklanadi. “Navoiy asrida yangi vaznlar va musiqiyda kuylangan vaznlar” bo‘limida “M.A.”-

da ko‘rsatilgan 2 ta 16 ruknli o‘lchov va asarda keltirilgan qo‘shiq vaznlari sanaladi. S.Mirzayevning muhim xizmati N. she’riy asarlari vazn xususiyatlarining, har bir asarda asoslanilgan she’riy o‘lchovlarning aniqlab chiqilishi bo‘ldi. “X.M.”dagi lirik she’rlarning bahr hamda vaznlari ko‘rsatkichi adabiyotshunosligimizda erishilgan jiddiy yutuqlardan edi. Bu ko‘rsatkichning keyinchalik H.Sulaymon tomonidan tuzilgan “X.M.” devonlari nashridan o‘rin olishi uning ilmiy ahamiyatini yanada kuchaytiradi. Endi keng o‘quvchilar ommasi bu ko‘rsatkichlardan foydalanish hamda shoir asarlarining vazn xususiyatlari haqida ma’lumot olish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Keyingi tadqiqotlar bu ko‘rsatkichda 100 dan ziyod she’rning o‘lchovi noto‘g‘ri belgilanganligini ham ko‘rsatdi. Chunki S.Mirzayev N. asarlari vaznini belgilashda an’anaviy – asar o‘lchovini uning matla’si yoki birinchi bandiga ko‘ra aniqlash usulini qo‘llagan. U ruboiy vaznlari, shuningdek, matla’si 2 o‘lchovda yozilgan boshqa janrdagi she’rlardagina har bir misra vaznini ko‘rsatadi. Bu usulni ko‘p vaznli asarlarga nisbatan tatbiq etish ularning o‘lchov xususiyatlarini bir tomonlama belgilashga olib keladi. M-n, mujtass vaznida bitilgan she’rlar ko‘pincha 3-4 vaznga asoslanadi. Ramal va hafif bahrlari zaminida yaratilgan lirik yoki liro-epik asarlar 8 tagacha vaznda yozilishi mumkin.

Ad.: *Ҳожиаҳмедов А. Навоий арузи нафосати. – Т., 2006.*

An.H., E.O.

“NAVOIY ARUZI NAFOSATI” – taniqli adabiyotshunos olim Anvar Hojiahmedovning N.ning aruz nazariyasi va amaliyotiga qo‘shgan hissasini o‘rganishga bag‘ishlangan kitobi (2006). Muallifning yozishicha, “Alisher Navoiyning aruz imkoniyatlaridan foydalanishdagi mahorati, xususan, uning bu sohadagi kashfiyotchiligi ko‘plab shoirlar, olimlar, ahli she’rlar diqqatini o‘ziga jalb etgan edi. Aruz tizimining ham nazariy, ham amaliy masalalarini chuqur o‘rganib, ko‘plab yangi vaznlarni she’riyatimizga olib kirgan, ushbu tizimning eng xalqchil, yoqimli vaznlarida ko‘plab she’rlar bitib, o‘zbek tilining boyligi va go‘zalligini har jihatdan isbotlab bergan daho ijodkor bu sohada adabiy taraqqiyotimiz ufqlarini yanada kengaytirgan edi”.

Kitob 2 bo‘limdan iborat bo‘lib, “Alisher Navoiy va o‘zbek aruzi rivoji” deb atalgan 1-bo‘limda N.gacha bo‘lgan o‘zbek aruzi, shoir ijodida aruz inkishofi, uning aruz nazariyotchisi sifatidagi faoliyati, ijodidagi ko‘pvaznlilik kabi masalalar o‘rganiladi. “Navoiy ijodining vazn xususiyatlari” deb nomlangan 2-bo‘limida N. she’riyati vaznini belgilovchi asosiy omillar, g‘azallari, ruboiylari, qit’alari, dostonlaridagi vazn rang-barangligi tekshiriladi. Shu tariqa, 1-bo‘limda N.ning aruz nazariyotchisi va 2-bo‘limda aruznavis shoir sifatidagi faoliyati tadqiq etiladi. Xotimada o‘zbek adabiyotida N. aruzi an’analari xususida fikr yuritiladi. Kitobga, shuningdek, shoir asarlarining vazn xususiyatlarini mufassal aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar ham ilova qilingan.

Ad.: *Ҳожиаҳмедов А. Навоий арузи нафосати. – Т., 2006.*

M.A., E.O.

NAVOIY ASARLARI TARJIMALARI – N. asarlarini tarjima qilishga ehtiyoj XVI asrdayoq boshlangan edi. Shoirning ham turkiy, ham forsiy adabiyot u-n birday ahamiyatga ega bo‘lgan adabiyotshunoslikka oid asari − “M.N.” tazkirasi uning vafotidan ko‘p o‘tmay, bir vaqtning o‘zida ikki shaharda fors tiliga tarjima qilinadi – 1521–1522-yy. orasida Sulton Muhammad Faxriy Hirotiy − Hirotda, 1522–1523-yy.da Muhammad Hakimshoh Qazviniy − Qazvinda bu ishni amalga oshiradilar. Oradan yana yarim asr o‘tgach, XVI asrning 70-yy.da Shoh Ali bin Abdul Ali “M.N.”ni yana forsiyga o‘giradi. Hindistonlik Abdulboqi Sharif Razaviy bu asarni to‘rtinchi marta fors tiliga tarjima qiladi.

Bursa shahri hokimi Fanoriy Jaloliddin Muhammadshoh N.ning “X.”si b-n tanishib qolib,

shoir Lome'iydan "F.Sh." dostonini usmonli turk tilida ifodalab berishni so'raydi. Natijada, XVI asrda usmonli turk shoiri Lome'iyning "F.Sh." dostoni dunyoga keladi. N. dostoni asosida yaratilganining o'zi uning tarjima ekanligini ko'rsatib turibdi. Bu tarjimalar o'ziga xos nazira-tarjimalar edi. Shuning u-n Lome'iy asariga ham ilmda ikki xil munosabat mavjud: ba'zilar uni tarjima deb qarasalar, boshqalar nazira sifatida baholaydilar.

N.ning durdona asarlari sekin-asta turkiy va forsiy xalqlar yashaydigan Sharq mintaqasidan oshib, G'arb mamlakatlari sarhadlarini ham zabt eta boshladi. Agar mutafakkir shoir asarlarini Sharq tillariga tarjima qilish XVI asrning birinchi choragidayoq boshlangan bo'lsa, ularning G'arb tillariga tarjimalari shu asrning ikkinchi yarmidayoq amalga oshirildi. Gap shundaki, 1557-y. Venetsiyada "Shoh Sarandipning uch navqiron o'g'lonlarining qanday qilib ziyoratga borg'oni. Janob Xristofor Armaniy italyan tiliga o'girgan" degan kitob bosilib chiqadi. Bu nashr o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otib, 1584, 1611, 1622 va 1628-yy.da qayta chop etiladi. 1583-y. u nemis tiliga o'girilib, "Sarandip shohi Ja'farning uch o'g'loni boshidan kechirgan yangi hayratomuz sarguzashtlarning birinchi qismi g'oyat nafosat va fasohat b-n hikoya qilinmish, endilikda Bazel shahrining fuqarosi Iogann Vetsel tomonidan italyan tilidan nemischaga yangidan tarjima qilinmish" nomi ostida Bazel shahrida bosilib chiqadi. 1599-y. bu tarjima qayta nashr etiladi, 1630 va 1723-yy. esa Leypsigda yana chop qilinadi. Birin-ketin bu kitobning fransuzcha (1719), gollandcha (1766), inglizcha (1722) tarjimalari paydo bo'ladi. Shu tariqa, 1557–1828-yy. mobaynida u Yevropaning turli tillarida jami 15 marta nashr qilinadi.

Y.E.Bertels bu tarjimaning N.ning "S.S." dostonidan olingan bir hikoyat ekanligini isbotlab berdi. Tarjima muallifi Xristofor Armaniy Eronning Tabriz shahridan bo'lib, uning turkiy tilni ham bilishi va turkiy manbalardan ham foydalangan bo'lishini taxmin qilish mumkin.

XVII asr gruzin shoiri Nodar Sitsishvilining "Bahromguriani" dostoni ham Nizomiyning "Haft paykar"idan ko'ra N.ning "S.S."iga ko'proq o'xshashi tadqiqotchilar tomonidan isbotlangan. Umuman, Y.E.Bertelsning ta'kidlashicha, N.ning "S.S." dostoni Xusrav Dehlaviyning "Hasht bihisht"i b-n birga XVI asrdan boshlab Yevropa o'quvchilariga yetib borgan va mashhur bo'lgan dastlabki Sharq adabiyoti namunalaridan hisoblanadi.

N.ning Yevropada ilk marta tilga olinishi esa 1697-y.ga oiddir (Fransiyada nashr etilgan Yevropadagi birinchi ensiklopediyada). Zahiriddin Muhammad Boburning ingliz va nemis tillariga tarjima qilingan "Boburnoma"si orqali esa yevropaliklar N. haqida to'laroq tasavvurga ega bo'ldilar.

"Yevropa mamlakatlarida N. ijodiga jiddiy va bevosita qiziqish, asosan, XIX asrdan boshlangan. 1841-y.da fransuz sharqshunos olimi E. Kartmerning "Sharq adabiyoti xrestomatiyasi" chop etilishi b-n N. Fransiyada tanila boshladi. Ulug' o'zbek shoirining "M.L." va "T.M.A." asarlari mazkur xrestomatiyadan joy oladi. F.A. Belen 1861-y. "M.N." va "X.M.", 1866-y. esa "M.Q." asaridan parchalar tarjima qiladi.

Venger turkshunos olimi va sayyohi Vamberi (1832–1913) 1863 yili Eron orqali O'rta Osiyoga sayohat qildi. Yurtiga qaytgach, o'z tadqiqotlarini jamlab, "O'rta Osiyo ocherklari" kitobini yozdi. U kitobning "O'rta Osiyo adabiyoti" bobida Nizomiy, N., Fuzuliy va Mashrab g'azallaridan tarjimalar keltirgan.

Ma'lum bo'ladiki, N. asarlarining G'arb tillariga tarjimalari 400 yildan ortiq tarixga ega.

Afsuski, G'arbiy Yevropa sharqshunoslari M.Belen, Pave de Kurteyl, E.Bloshe va boshqalar N. she'riyatini chuqur ilmiy asosda tadqiq etmadilar va buyuk shoirni "taqlidchi va tarjimon" hisoblab, uning adabiy merosiga to'g'ri baho bera olmadilar. Ular N. asarlarining qo'lyozmalarini tavsif etish b-n kifoyalandilar, xolos.

Buyuk o'zbek shoirining ijodiga nisbatan bunday noto'g'ri qarash Yevropa sharqshunosligiga shu qadar singib ketdiki, hatto Mixail Nikitskiy kabi rus olimlari ham unga tanqidiy qaray

olmadilar. Holbuki, M.Nikitskiyning 1856-y.da Peterburg universitetining Sharq tillari fakultetida yoqlagan “Amir Nizomiddin Alisherning davlat va adabiyot borasidagi ahamiyati” degan magistrlik dissertatsiyasi buyuk o‘zbek shoirining nomini ilmiy ommalashtirish ishida olg‘a tashlangan odim bo‘lgan edi. 1857-y.da “Boburnoma” matnini nashr etgan rus sharqshunosi N.I.Ilminskiyning fikriga ko‘ra, N. “ona tili u-n qariyb yakka-yu yagona yoxud jilla bo‘lmasa qudratli kurashchi edi. Turkolog I.N.Berezin o‘sha yilning o‘zidayoq “Turk xrestomatiyasi”ning 1-tomiga “M.N.”, “M.Q.”dan parchalarni va N.ning boshqa she’rlarini kiritadi.

N. nomining rus matbuotida birinchi marotaba tilga olinishi A.S.Pushkin yashagan davrga to‘g‘ri keladi. 1835-y.da rus sharqshunosi Pavel Stepanovich Savelyev “Ensiklopedik leksikon”ning 1-jildiga kiritilgan “Alisher” sarlavhali maqolani yozadi. L.M.Lazerev N. devonidan olingan g‘azallarni 1866-y.da “Turk tili xrestomatiyasi”da chop etadi. Shundan bir yil keyin, 1868-y.da sharqshunos V.V.Velyaminov – Zernov XVIII asrning birinchi yarmida Turkiyada N. asarlari asosida noma’lum muallif tomonidan tuzilgan “Abushqa” lug‘atining matnini nashr etadi.

XX asrda asarlarining tizimli ravishda rus tiliga va qardosh xalqlar tillariga tarjima qilinishi tufayli shoir nomi yanada mashhur bo‘lib ketdi. 1941-y. N. tavalludining 500 yilligini keng tantana qilish haqida qaror qabul qilinib, shoir hayoti va ijodi tadqiqi, asarlarining nashri hamda tarjimasi bo‘yicha katta ishlar boshlab yuboriladi. Lekin kutilmaganda yuz bergan Ikkinchi jahon urushi tufayli bu yubiley ortga surilib, 1948-y.da o‘tkaziladi. 1968-y. N.ning 525 yilligi katta tantana qilinadi. Shu munosabat b-n 1968–1970-yy. da rus tilida N.ning 10 jildlik “Tanlangan asarlar”i bosilib chiqdi (Bungacha ham shoirning bir necha alohida to‘plamlari rus tilida nashr qilingan edi). N.F.Lebedev, V.A.Rojdestvenskiy, S.Ivanov, N.Ushakov, N.Panov, L.Penkovskiy, V.Derjavin, S.Lipkin, M.Lozinskiy kabi tarjimonlarning bu boradagi xizmatlari beqiyos.

Alfred Kurella urushdan keyingi dastlabki yillarda N.ning “F.Sh.” dostonidan parchalar tarjima qilib, 1946-y. “Noye Velt” (“Yangi dunyo”) jurnalining 15-sonida “Yilning to‘rt fasli” nomi b-n e’lon qilgan bo‘lsa, keyinchalik dostonni to‘laligicha nemis she’rxonlariga tanishtirdi.

M.Aminzoda “F.Sh.”ni (R.Jalil b-n hamkorlikda) 1948-y. tojik tiliga tarjima qiladi. Eron olimi va tarjimoni Muhammad Naxchivani “X.”ni fors tiliga o‘girgan.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi N.ga yangi hayot baxsh etdi. Shoir asarlari dunyoning ko‘plab tillariga tarjima qilinmoqda va o‘zining jahon adabiyotidagi munosib o‘rniga ega bo‘lmoqda. Jumladan, tavalludining 550 yilligi munosabati b-n Parijda “Navoiy antologiyasi” (Anthologie Navoi) to‘plami chop etilib, undan shoirning Jan Per Balp tarjimasidagi 27 g‘azali, 12 qit’asi, 5 chistoni, 10 ruboiysi, 3 muxammasi, 5 fardi va 1 mustazodi o‘rin olgan. 21 g‘azali, 98 hikmati va 6 ruboiysi Y.Parda, N.Pfeffer, Q. Ma’murov, L.Kmetyuklar tomonidan nemis va ingliz tillariga tarjima qilinib, “Ummondan durlar” nomi b-n 2000-y. “Sharq” nashriyotida bosilib chiqdi. Kanadalik Geri Dik “L.T.” dostoni va g‘azallaridan namunalarni ingliz tiliga tarjima qilib, 2006-y.da nashr ettirgan bo‘lsa, 2008-y.da M.Ergashev va J.J.Gatelar uning 30 dan ziyod g‘azalini fransuz tiliga o‘girib chop qildirdilar. 2013-y. shoir she’rlaridan namunalar Y.Kjijevovskiy tarjimasida polyak tilida bosilib chiqdi. 2021-y.da Boku davlat universiteti professori Ramiz Asqar “X.”ning ozarbayjoncha tarjimasini amalga oshirdi. Umuman, N. asarlarini turli xorijiy tillarga tarjima qilish bilan bog‘liq sa’y-harakatlar jadal davom etmoqda.

Ad.: *Муродов М. Навоийшунослар жасорати. – Т., 1970; Клименко А. Дўстлик рамзи. – Т., 1974; Каримов Ш. Диллардан дилларга. – Т., 1980; Олимов С. Навоий асарлари таржималари. – Т., 1991; Абдуллажонов А. Навоий асарлари бадииятини немисча таржималарида*

қайта яратиш ва табдил этиш. НДА. – Т., 1998; Очилов Э. Алишер Навоий. – Т., 2013; Сирожиддинов Ш., Юсупова Д., Давлатов О. Навоийшунослик. – Т., 2018; Алишер Навоий: Қомусий луғат. 1–2-жилдлар. – Т., 2016.

E.O., M.A.

NAVOIY ASARLARI ASOSIDA YARATILGAN SAHNA ASARLARI – N. dostonlarini sahnalashtirish o‘tgan asrning 20-yillari boshidan boshlangan. Bu xayrli ishning boshida atoqli dramaturg Mannon Uyg‘ur turgan. Shoir va dramaturg Xurshid 1922-y. 5 parda, 8 ko‘rinishli “F.Sh.” musiqali dramasini yozadi. Pyesani dastlab havaskorlar guruhi sahnalashtirgan. 1923-y. esa asar O‘zbek davlat “Namuna” truppasida Mannon Uyg‘ur tomonidan qo‘yiladi. Bosh rollarni Abror Hidoyatov, Ma’suma Qoriyeva, Fotima Kamolova ijro etgan. Xurshid hamda rejissyor Gabdulla Kamol tomonidan “F.Sh.”-ning yana bir sahna ssenariysi yaratiladi hamda 1926-y. 15 aprelda Samarqandda namoyish etiladi. Ushbu doston asosida Mannon Uyg‘ur tomonidan sahnalashtirilgan asar 1930-y.da teatrlarning birinchi olimpiadasi o‘tkazilishi munosabati b-n Moskva shahrida 4 marta namoyish qilingan. Bunda Shirin rolini Halima Nosirova ijro etadi.

1937-y.da Moskvada o‘zbek san’atining birinchi dekadasi bo‘lib o‘tadi. Dekada dasturiga kiritilgan “F.Sh.” dramasi ham tomoshabinlarga havola etiladi. Bosh rollarni Halima Nosirova, Muhiddin Qoriyoqubov, Lutfixonim Sarimsoqova ijro etadilar. Spektaklni tomoshabinlar yaxshi qabul qilishdi, mutaxassislar aktyorlar mahorati, dirijyor Muxtor Ashrafiyning xizmatini alohida e’tirof etishdi.

“F.Sh.” dostoni asosida yaratilgan sahna asarlari orasida Komil Yashin qalamiga mansub “F.Sh.” dramasi, ayniqsa, mashhur bo‘lib, asar barcha viloyatlardagi teatrlarda sahnalashtirilgan. Jumladan, ushbu spektakl Mullato‘ychi Toshmuhammedov nomidagi viloyat musiqali drama teatrida ham uzoq yillar sahnadan tushmagan. Keyinroq san’atkorlarning ijodiy izlanishlari natijasida “F.Sh.” operasi ham yaratildi. Unga mashhur bastakorlar V.A.Uspenskiy va G.A.Mushel musiqa yaratishdi. 1957-y. 15-mayda operaning taqdimoti o‘tkazilib, u mutaxassislar tomonidan o‘zbek musiqa san’atining muvaffaqiyati sifatida e’tirof etildi.

N.ning “L.M.” dostoni ham bir qator inssenirovka va pyesalarga manba bo‘lgan. Bu doston asosida shoir va dramaturg Xurshid hamda rejissyor Mannon Uyg‘ur 1925-y.da spektakl yaratdilar. Keyinchalik doston teatrlarning talabi b-n 8 marta qayta ishlandi. Dostonning sahnaviy talqini qator viloyat teatrlarida namoyish qilindi. “L.M.” dostoni asosida bastakorlar T.Sodiqov va R.E.Gliyer tomonidan opera ham yaratilgan. U birinchi marta 1940-y. 17-iyulda namoyish etildi. Spektakl qayta-qayta sahnalashtirildi. Tomoshabinlar orasida mashhur bo‘ldi.

1991-y. M.Yunusov rejissyorligida “L.M.” dostoni asosida 8 qismdan iborat serial yaratildi. Serialda N.ning she’rlari M.To‘xtasinov, R.Qosimov, U.Rasulov, M.Samandarovalar tomonidan kuylangan hamda ushbu san’atkorlar yaratgan kuylardan foydalanilgan.

Istiqloldan avvalgi paytlarda N. ijodidan mustahkam o‘rin egallagan Layli va Majnun, Farhod va Shirin, Bahrom va Dilorom, Suhayl va Mehr fojialari haqida hikoya qiluvchi doston-u hikoyatlar sahnalashtirilib kelingan bo‘lsa, yurtimiz mustaqillikka erishgach, “X.”ning keng qamrovli, falsafiy teran so‘nggi dostoni – “S.I.” asosida “Iskandar” nomli drama yaratildi. Drama ham, uning ilk sahnaviy talqini ham O‘zbek Davlat drama teatrida atoqli rejissyor Bahodir Yo‘ldoshev tashabbusi b-n maydonga keldi. El sevgan aktyorlar: Afzal Rafiqov – N., Elyor Nosirov – Iskandar siymosini sahnada yuksak mahorat b-n gavdalantirishdi. Nabi Abdurahmonov tomonidan Yoshlar teatrida N.ning “L.T.” dostonidagi Shayx San’on qissasi asosida spektakl sahnalashtirilib, unda N. ning irfoniy g‘oyalari ilgari surildi.

Ad.: *Турсунов Т. Ўзбек театри тарихи. (Дарслик-монография). – Т., 2010.*

Z.R.

“NAVOIY ASARLARI LUG‘ATI” I – N. asarlarining o‘n besh jildligiga ilova sifatida 1972-y.da chop etilgan ushbu lug‘at P.Shamsiyev va S.Ibrohimovlar tomonidan tuzilgan. Tuzuvchilarning ta’kidlashicha, bu lug‘atdagi bosh so‘zlar 12500 ga yaqin, iboralar 8000 dan ortiq. Unda so‘zlar avval kirill, so‘ngra arab yozuvida berilgan. O‘zlashma so‘zlar maxsus belgilar b-n ko‘rsatilgan: a.-arabcha, f.-forscha, a.-f.-arabcha-forscha; yun.-yunoncha; hind-hindcha. Olimlar so‘zlarni uch xil usulda izohlaganlar: a) tushuntirish usuli; b) tavtologik usul; v) aralash usul. Birinchi usulda so‘zlar keng izohlangan: *akram* a. eng karim, eng yaxshi, o‘ta himmatli. Ikkinchi usulda so‘zlarning sinonimlaridan foydalanilgan: *jonib*-a. tomon, taraf, jihat; uchinchi usulda so‘zlar ham tushuntirish, ham sinonimlar b-n izohlangan: *dilafgor* – f. dili xasta, dili vayron, ortiq xafagarchilik chekkan. Tuzuvchilar imkon boricha so‘zlarning hamma ma’nolarini qamrab olishga harakat qilganlar: dilbar – f. 1. dilni tortuvchi; 2. go‘zal; sevgili, mahbuba. So‘z variantlari ikki xil ko‘rsatilgan birinchi usulda so‘zlar bir-biriga havola qilingan holda berilgan: diklay k. dakla. Ikkinchi usulda yonma-yon berilgan: Iyso, Iysi a., q. Iso.

Ko‘p ma’noli so‘zlar ma’nosi raqamlar b-n ko‘rsatilgan: ko‘k – 1.osmon; 2. ko‘k rang. Lug‘atda so‘z ma’nolariga ko‘plab tasdiqlovchi misollar berilgan. Bu uning ahamiyatini oshirgan. “Kirpich” g‘isht so‘ziga “F.K.”da quyidagi misol berilgan:

Falak boshingni kirpich muttakosi qilg‘usi
gar xud,
Bu dam xurshid xishtidin boshingg‘a
muttako yetgay.

Bosh so‘z b-n bog‘liq iboralar qora kirill harflarda ajratib ko‘rsatilgan:

Naim ar. – ne’matlar, farovon va rohat turmush u-n kerakli narsalar; Noz-u naim turli ne’matlar, noz-u ne’matlar; naimi ravza – jannat ne’matlari.

So‘zlarning birlik shakli qavs ichida berilgan: as’hob a. (birl. Sohib) suhbatdoshlar, hamsuhbatlar, ulfatlar, do‘stlar; as’hobi jovidoniy – doimiy suhbatdoshlar; ol-u as’hob – xonadon va suhbatdoshlar; as’hobi risolat oyin – payg‘ambar hamsuhbatlari. Mazkur lug‘at o‘zbek mumtoz adabiyotini o‘rganishda muhim ahmiyatga egadir.

Ad.: *Шамсиев П. Иброҳимов С. Навоий асарлари луғати. – Т., 1972.*

E.U.

“NAVOIY ASARLARI LUG‘ATI” II – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasining “Nodir nashr va qo‘lyozmalar bo‘limi”da PV 78 raqamli Nazar Ali Sayyidning “Navoiy asarlari lug‘ati” saqlanmoqda. Qo‘lyozma 22x12 sm hajmda bo‘lib, 79 sahifadan iborat. Xati nasta’liq, poygirlari to‘liq, qog‘ozi novvot rang. Qo‘lyozma taxminan XVI–XVII asrlarda Nusratulla Buxoriy tomonidan ko‘chirilgan. Ushbu o‘zbekcha-forscha lug‘atning asliyati va qachon tuzatilgani hozircha noma’lum. Lug‘at yuziga 1973-y. deb yozilgan. Bu uning kutubxonaga kelib tushgan vaqtini anglatadi. Lug‘atda, asosan, N. shuningdek, Lutfiy, Mir Haydar asarlaridagi o‘zbekcha so‘zlar fors tilida izohlangan. O‘rta asr lug‘atchilik an’analari usulida tuzilgan ushbu asar muqaddimasida o‘zbekcha so‘zlarning yasalishi haqida umumiy ma’lumot berilgan. Lug‘at eski o‘zbek alifbosi bo‘yicha tuzilgan. *A, b, t, s, sh, k, y* harflariga ko‘plab misollar berilgani holda *ch, d, r, z, g‘, m, i* belgilariga misollar kamroq keltirilgan.

Lug‘at avvalida *ot, o‘t, tuz, to‘sh, uz, it, yosh, o‘q* kabi omonim va ko‘p ma’noli so‘zlar misolida o‘zbek tilining boy va rang-barangligi haqida ma’lumot berilgan. Nazar Ali Sayyid quyidagi to‘rtlikning birinchi misrasida ***it*** so‘zi ***kuchuk***, ikkinchisida ***ket,*** to‘rtinchisida ***itar*** ma’nolarida ishlatilganini ko‘rsatish maqsadida “M.L.”dan misol keltiradi:

Ey raqib, o‘zni anga tutsang ham ***it****,*
Bizga rahm aylab, aning ko‘yidin ***it****.*
Garchi bor do‘zaxcha ishqing shu’lasi,
Bizni o‘z ilging bila ul sori ***it****.*

Ikkinchi faslda qarindoshlik atamalari izohlangan: ***og‘a-barodari buzrug, ini-barodari ko‘chak, egach-hohari buzrug, singil-hohari ko‘chak, yotlig‘-duxtar, bo‘ta-farzand.*** Undan so‘ng tana a’zolari keltirilgan: ***engak-zanaxdon, ko‘ksuksiyna, manglay-peshona, tiz-zonu, ern-lab, tishdandon.*** Lug‘atdagi asosiy misollar N. asarlaridan olingan. Chunonchi, ***uyat va uyal*** so‘zlari forscha ***sharmandagi*** ma’nosi b-n izohlangach, shoirning quyidagi baytlari keltiriladi.

Gulga farxunda jamolingdin uyat,
Sarvg‘a toza niholingdin uyat...

Ey ko‘z, onsiz o‘zga yuz ko‘rmakni
qilmishsen havas,
Hajr tig‘idin o‘yul yoxud Navoiydin uyol.

So‘z ma’nolari sodda, lo‘nda izohlangan: iya – ba ma’niyi sohib boshad, nazm:

Bir iyosiz it bo‘lub erdi Navoiy yorsiz,
Bo‘lmasun, yo Rabki, hargiz banda sultondin judo.

Agar so‘z ma’nosi keng o‘quvchilar ommasiga tanish bo‘lsa, misol berilmaydi. M-n: *egaksuxan, o‘rgamchi-ankabut, tiz-zonu, uchmoq-bihisht***.** Ma’rifatli ota-bobolarimiz kelajak avlodga aniq ma’lumot qoldirish u-n so‘zning orfografiya va orfoepiyasiga alohida e’tibor berganlar. Arab yozuvida bir xil yozilib, turli ma’no anglatuvchi omograflar yoniga maxsus grammatik belgilar qo‘yganlar. Nazar Ali Sayyid **ur** va **o‘r** so‘zlari arab yozuvida bir xil yozilishini hisobga olib, ikkinchi so‘z **o‘r-chuqur** ma’nosini anglatishini ko‘rsatish maqsadida yoniga **imol**a atamasini qo‘yadi. **K** harfi lug‘atda **kofi arabiy**, **g** esa **kofi ajamiy** atamasi orqali ko‘rsatilgan: **kengash-kofi avval arabiy va kofi soniy ajamiy ba ma’nii mashvarat.**

E.U.

“NAVOIY ASARLARI UCHUN QISQACHA LUG‘AT” – 1993-y.da nashr etilgan lug‘at. Ushbu lug‘at noshir f.f. d-ri B.Hasanovning yozishicha, “Navoiy asarlari lug‘ati” (T., 1972) va “Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati” (T., 1983–1985)dan quyidagi xususiyatlari b-n farq qiladi: 1. Lug‘atdan o‘rin olgan so‘zlarning, deyarli, yarmi oldingi nashrlarga kiritilmagan; 2. So‘zlarning yangi ma’nolari birinchi marta qayd qilinmoqda; 3. Ushbu lug‘atda, asosan, N. asarlarida uchrovchi 9000 ga yaqin arabiy-forsiy so‘z va iboralar izohlangan. Lug‘atda shoir asarlarida qo‘llanilgan o‘zbekcha so‘zlar ham uchraydi. Izohlanayotgan so‘z ham arabcha, ham kirill harflarida berilgan. Bu jihatdan u o‘quv lug‘atlariga yaqin turadi. Lug‘atda arab tiliga xos harflar kirill belgilarida soddalashtirib berilgan: a) *te* va *to* (itqi) – t b-n; b) he (hoyi hutti) va ho (hoyi havvaz) *h* bilan; v) sin, sod va se harflari s b-n; g) ze, zol, zod va *zo* (izg‘i) *z* harfi b-n berilgan. Lug‘atda, asosan, so‘zlarning bir ma’nosi ko‘rsatilgan: dah – o‘n. Agar so‘z ikki va undan ortiq ma’noga ega bo‘lsa, ular raqamlar b-n ko‘rsatilgan: garon – 1. og‘ir; 2. qimmatli arzon emas. Siddiq 1. to‘g‘ri, chin, vafodor; 2. Hazrati Abu Bakrning laqabi

Lug‘at maqola ikki xil tuzilgan. Birinchisi bosh so‘z va uning izohidan iborat: ko‘s-katta nog‘ora. Ikkinchisida bosh so‘z, uning izohi, bosh so‘z ishtirok etgan ibora: paymona jom; -yi umr – umr jomi.

Lug‘at qisqa bo‘lgani u-n N. asarlaridan misollar berilmagan. So‘z va iboralarning qaysi tilga oidligi ko‘rsatilgan.

Ad.: *Навоий асарлари учун қисқача луғат. – T., 1993.*

E.U., E.O.

NAVOIY ASARLARIDA EPIZODIK OBRAZLAR – N. asarlari syujetida bir-ikki epizodlarda ishtirok etuvchi obrazlar. Adabiy asardagi obrazlar, personajlar asardagi o‘rni va ahamiyatiga ko‘ra quyidagicha tasnif qilinadi:

1. Bosh qahramonlar.
2. Ikkinchi darajali qahramonlar.
3. Epizodik obrazlar.

E.O. asardagi muayyan bir voqea, vaziyat b-n bog‘liq bo‘ladi. Garchi bir-ikki epizodda ishtirok etsa-da, E.O.larning o‘z qiyofasi, aniq, ko‘zga tashlanib turuvchi xususiyatlari mavjud va ular ana shu jihatlari b-n esda qoladi. Ular o‘ziga yuklatilgan vazifani bajarish u-n paydo bo‘ladi, vazifa bajarilgandan so‘ng asarda boshqa ko‘rinmaydi. E.O.lar asarda o‘zgarmaydigan, bir qiyofada qoluvchi personajlardir, zero ularning faqat bitta yoki ikkita epizoddagina ishtirok etishi mazkur obrazlarning rivojlanishi yoki o‘zgarishini tasvirlash, ya’ni ularning dinamikasini ko‘rsatish imkonini bermaydi. E.O.lar yaratish yozuvchidan katta mahorat talab qiladi. N. asarlarida ham bir qator mahorat b-n yaratilgan E.O.lar mavjud. Birgina “F.Sh” dostonining o‘zida E.O.larning butun bir jamlanmasini ko‘rish mumkin. Ular orasida Boniy, Moniy, Qoran, Suhaylo, Bahrom, Xusravning elchisi, Hiylagar, Zoli makkora singarilar bor. Xususan, Zoli makkora (makkora kampir) obrazi alohida ajralib turadi. U asarning faqat XLVIII bobida ko‘rsatilgan va doston syujeti zanjirining mana shu bobda tasvirlangan voqealarida ishtirok etadi. Zoli makkora Farhodga eng og‘ir ruhiy zarbani berishi, unga Shirinning o‘limi haqida yolg‘on xabarni yetkazishi lozim. N.ning E.O. yaratish mahorati asarning mana shu o‘rnida o‘zining bor bo‘yi b-n namoyon bo‘ladi. Bu, eng avalo, makkoraning tashqi qiyofasi tasvirida ko‘rinadi. Bu o‘quvchida faqat shum kampirgagina emas, umuman, makr-hiylaga, yovuzlikka qarshi nafrat uyg‘otadi:

Qadi ikki bukulgan pir zole,
Falak zoli kibi hiylat sigole.

Xututi makrdin yuzinda yuz chin,
Tiliga o‘tmayin umrida so‘z chin.

Chu soz aylab fusun-u hiylayi shum,
Qo‘lida xora yumshab, o‘ylakim mum.

Zoli makkoradan tashqari “F.Sh.” dostonida hiylagar obrazi ham bor. Farhodni halol jangda yenga olmagan Xusrav uni makr b-n qo‘lga tushirish rejasini tuzadi va Hiylagar epizodik obrazi ana shu rejani amalga oshirishda asosiy rol o‘ynaydi. Kampir ishq dardidan azob chekkan oshiq qiyofasida Farhod huzuriga borib, u b-n muloqotga kirishadi hamda behush qiluvchi dori sepilgan gulni iskatib, uni Xusrav odamlariga tutib beradi. Lekin uning bu manfur qilmishi o‘zining ham halokatiga sabab bo‘ladi. Farhodning do‘sti Shopur hiylakorning jazosini beradi:

To‘kub Farhodning ul holig‘a yosh,
Qo‘nqordi ul qayodin bir og‘ir tosh.

Biyikrak yerda tutmish erdi manzil,
Ayog‘ ostida hiylatsoz g‘ofil.

Aningdek urdi ul tosh birla oni.
Ki, avval mag‘zi, so‘ngra chiqti joni.

Qiyofasi mahorat b-n chizib berilgan ana shunday E.O.lar N.ning boshqa asarlarida ham mavjud. “L.M.” dostonidagi cho‘pon, Navfalning qizi, oshiq yigit; “S.I.” dostonidagi Boriq Barbariy, Mag‘ribiy, Feruz, Hind royi, Mahrami xos, Karkadan, Qahqaro, Chin go‘zali, Vahshiy obrazlari shular jumlasidandir.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Ўзбек адабиёти тарихи. 5 жилдлик, 2-жилд. – Т., 1977.*

A.A.

“НАВОИ В МУЗЫКЕ” – musiqashunos Z.Karimovaning N. va musiqa mavzusiga bag‘ishlab yozgan kitobi. Mazkur kitobni yaratishda u Y.E.Bertels, I.Krachkovskiy, T.Vizgo, Oybek, A.Deych tadqiqotlariga suyangan. N. ijo-

dida uchraydigan musiqa san’ati va ilmi haqida ishonchli ma’lumot hamda xabarlarni yaxshi tahlil va talqin qilgan. N.ning musiqa san’ati rivojiga qo‘shgan hissasi “Shoirning musiqiy olami” (“Музыкальный мир поэта”), “She’riyat va musiqiy meros” (“Поэзия и музыкальное наследие”), “Navoiy va teatr” (“Навои и театр”), “Navoiy va romans” (“Навои и романс”), “Navoiy va simfonizm” (“Навои и симфонизм”) kabi boblarda ochiqlab borilgan.

Kitobda berilgan N. she’rlarining ruscha tarjimoni D.Rashidovadir.

Ad.: *Каримова З.Г. Навои в музыке. – Т., 1988.*

B.R.

NAVOIY VA BOBUR – Sharqdagi Uyg‘onish davrining ulug‘ siymolari – siyosat, ilm-fan, madaniyat va adabiyot arboblari orasida Zahiriddin Muhammad Boburning takrorlanmas ijodi munosib o‘rinlardan birini egallaydi. Bobur o‘zbek she’riyatini o‘ziga xos yangi ruh, hayotiy nafas va samimiy ohanglar b-n boyitdi. N.dan so‘ng yashab ijod qilgan o‘zbek san’atkorlarining aytarli hammasida N. ijodiyotining ma’lum bir jihatlari o‘ziga xos shakllarda aks etdi. Boshqacha qilib aytganda, deyarli, har bir o‘zbek ijodkoriga N.dan nimalardir o‘tgan yoki ularning badiiy merosida ulug‘ shoir dahosidan nimadir yashaydi.

Bobur o‘z memuarida N. haqida 16 ta ma’lumot bitgan. Chunonchi: *“Alisherbek naziri yo‘q kishi edi. Turkiy til bila to she’r aytubturlar, hech kim oncha ko‘p va xo‘b aytqon emas”,* – deydi. Shu fikrning o‘ziyoq Boburning N. shaxsi va ijodiyoti haqida bilish zarur bo‘lgan hamma narsani bilganligidan dalolat beradi. Bobur butun umri va ijodi davomida N.ning xalq, vatan, inson mehr-u muhabbatini targ‘ib etuvchi ulug‘ va ibratli maktabidan ta’lim oldi. Bobur u-n N. haqiqatda *“naziri yo‘q”* ustod edi. U boshqa shoir-u yozuvchilardan ko‘ra N.ning ijod olamidan ilhomlandi. Bobur iste’dodining tiklanish bosqichlaridan boshlab N. she’riyati b-n muntazam ravishda mashg‘ul bo‘lgan. Bu haqda quyidagi so‘zlar ham ma’lum bir tasavvur berishi shubhasiz. Bobur yozadi: *“Odina kuni oyning yigirma uchida (1519-yil) Alisherbekning to‘rt devonidin buhur, avzon tartibi bila g‘azallar va abyotkim, intixob qililodur edi itmomig‘a yetdi”.* Bobur N.dan, avvalo, hayotga, insonga e’tiqodni, yuksak va so‘nmas tuyg‘u hamda g‘oyalarga sodiqlikni o‘rganib, umuminsoniy masalalarni davr va tarix voqea-hodisalari b-n mustahkam aloqada badiiy tadqiq etish sirlarini o‘zlashtirdi.

“Navoiy g‘azalining asosiy va birinchi xislati, – deb e’tirof qilgan edi Maqsud Shayxzoda, *– mantiqiy tarzda tuzilishi, bir momentning ikkinchi momentdan tug‘ilib kelishidir. Bu juda muhim xislatdir. Chunki ko‘p g‘azalnavis shoirlarda she’r go‘zal va alohida baytlardan iborat bo‘lib, mexanik ravishda tuzilgani uchun undagi baytlar oldinma-keyin qilib almashtirilsa, o‘qigan kishi bu o‘zgarishning farqiga yetmasligi ham mumkin...”* Boburning aruz risolasida ushbu masalaga oid xarakterli ma’lumotlar bor. N. g‘azallaridagi fikriy yaxlitlikni u bir necha bor qayd etgan. Jumladan, N. g‘azallaridan birini keltirib, unga *“Boshdin-oyoq bu g‘azalda bir hikoya manzum bo‘lubtur”,* – deb izoh ham bergan.

Umuman olganda, she’rda g‘oyaviy butunlikka erishishni Bobur badiiylikning asosiy shartlaridan biri deb bilgan. Bu jihatdan u N.ga munosib izdosh. Shuning u-n uning g‘azaliyotidagina emas, ruboiy, qit’a, tuyuqlari orasida ham parokanda ohangda bitilgan she’rlar uchrayvermay-

di. Sharq ruboiychiligida Bobur yangi bir sahifa ochdi. Lekin buni ham u, avvalo, N.dan saboq olib, ustozi tajribalariga tayanib, amalga oshirdi. N. ruboiylaridan birida g‘ariblik tuyg‘usini mana bu shaklda ifoda etgan:

Munglug‘ boshim ostidagi toshimnimu dey?
Tosh ustidagi g‘arib boshimnimu dey?
Hasrat suyidan ko‘zimda yoshimnimu dey?
O‘lmakdin sa’broq maoshimnimu dey?

N.ning mazkur ruboiysiga Bobur payravlik qiladi va yozadi:

G‘urbat tug‘i yopqon ruhi zardimnimu dey?
Yo hajr chiqorg‘on ohi sardimnimu dey?
Holing ne durur bilurmisen dardimni,
Holingni so‘raymu, yo‘qsa dardimnimu dey?

Birinchi ruboiyda she’riy ma’no savol-murojaat usulida bayon qilingan. Bu esa lirik qahramon qalbidagi iztirobni yanada kuchaytirib ko‘rsatadi. Bobur yaratgan to‘rtlik ham ichki ruhi, ma’no ko‘lami jihatidan o‘ziga xos she’r darajasiga yetkazilgan. N. ruboiylaridan ilhomlanib, Bobur qator to‘rtliklar yaratgan. Ammo biror vaqt ham ijodiylikdan chekinmagan. Shuning u-n bo‘lsa kerak, u ko‘pincha ustozi b-n she’riy musobaqaga kirishganga o‘xshab tuyuladi. M-n, quyidagi ruboiylarning birinchisi N. qalamiga mansub:

Andin berikim, qoshimda yorim yo‘qtur,
Hijronida juz nolayi zorim yo‘qtur.
Dasht uzra quyun kabi qarorim yo‘qtur,
Sargashtaligimda ixtiyorim yo‘qtur.

Bobur yozadi:

Ko‘pdin berikim yor-u diyorim yo‘qtur,
Bir lahza-yu bir nafas qarorim yo‘qtur.
Keldim bu sori o‘z ixtiyorim birla,
Lekin borurimda ixtiyorim yo‘qtur.

Bu ruboiylarda tasvir usuli o‘xshash. Vazn, radif bir xil. N. she’rda hijron dardidan joni o‘rtangan sargashta oshiqning qalb hasratini ifodalagan. Bobur ruboiysining g‘oyaviy negizida ham ayriliq, hijron tuyg‘usi yotadi. Biroq unda ijtimoiy rang quyuq, ya’ni yor b-n birga diyor qayg‘usi ham talqin etilgan.

Mumtoz poetikada nido san’ati bor. N. bu san’atdan ruboiylarida ko‘p va har gal mahorat b-n foydalangan. M-n, shoir ba’zi she’rlarida o‘z kechinmalarini *“bodi sabo”, “el”, “subh”, “ko‘ngul”* kabilarga to‘g‘ridan to‘g‘ri murojaat qilish orqali tasvirlab beradi:

Ey bodi sabo, aylasang ul sori guzor,
Jon birla ko‘ngulni topshuray, olg‘ach bor.
Ko‘nglumni itiga tu’ma qilg‘il zinhor,
Jonimni dog‘i ayog‘iga ayla nisor.

Bu ruboiyda ishqiy mazmun yoritilgan. Lirik qahramonning ko‘ngil orzularini *“bodi sabo”*ga qarata bayon etishi, uning ruhiy holatidagi intizorlik hislarini chuqurlashtirgan.

Ey bodi sabo, ayla Xurosong‘a guzar,
Mendin degil ul yori parishong‘a xabar.
Necha safar o‘z ko‘nglung uchun qilg‘aysen,
Endi bizning uchun ayla bu yong‘a safar.

Bobur esa bu she’rni yozishda, birinchidan, ustozining to‘rtligida qo‘llanilgan badiiy san’atga asoslanadi va fikrini *“Ey bodi sabo”* degan xitob so‘zlari b-n boshlaydi. Ikkinchidan, N.ning *“Ey bodi sabo, aylasang ul sori guzar”* degan gapini o‘z maqsadiga moslab, *“Ey bodi sabo, ayla Xurosong‘a guzar”* shaklida takrorlaydi. Ko‘rinadiki, N. an’anaviy mazmunlarni talqin etishda foydalangan badiiy san’at va tasvir vositalarini Bobur hayotiy real kechinmalar tasviri u-n istifoda etadi.

“Boburnoma”ga kelsak, u, eng avvalo, kurashchi, favqulodda faol, haqparast bir shaxsning hayot va qismat kitobi. “Boburnoma” siyosatchi u-n – siyosat, tarixchi u-n – tarix, faylasufga falsafa, olimlarga ilm-fan, adabiyotchiga esa adabiyot bitigi, Bobur singari mutafakkir, olim va

adibni kamolga yetkazgan milliy tilning bebaho xazinasidir.

“Boburnoma” N. nasri namunalari b-n qiyoslansa til, ifoda, ta’rif, tanqid, talqinlarda N.dan ilhomlanish, uning tajribalarini rivojlantirish harakati ham yorqinlashib borishi o‘z-o‘zidan ayonlashadi.

Mirzo Bobur did, zavq darajasi, iste’dodining kuch va imkoniyatlari jihatidan yirik san’atkorlar toifasiga kiradi. U har jihatdan N.ga munosib shogird va izdosh. N. ijod maktabining ulug‘ bir vakili sifatida Bobur adabiyotimiz tarixida katta vazifalarni amalga oshirdi.

Ad.: *Шайхзода М. Ғазал мулкининг султони. 6 томлик. 4-том. – Т., 1972; Ҳаққул И. Навоийга қайтиш. 4 китоб. – Т., 2021; Ҳаққул И. Ҳаёт, адабиёт ва абадият. – Т., 2019.*

I.H.

“NAVOIY VA ADABIY TA’SIR MASALALARI” – N. tavalludiga 525 yil to‘lishi munosabati b-n tayyorlanib, akad. V.Zohidov va f.f.d-ri A.Qayumov, A.Hayitmetovlar tahriri ostida chop etilgan to‘plam. To‘plamda N. ustoz salaflari va zamondoshlaridan bahramandligi, o‘z navbatida, shoirning o‘zidan keyingi qalam ahliga ta’siri masalalari yoritilgan. To‘plam akad. V. Zohidovning “Navoiy dunyoqarashining asosiy manbalari” maqolasi b-n boshlangan. Maqolada N. o‘zigacha yaratilgan barcha ilg‘or ma’naviy boyliklarini chuqur tanqidiy o‘rganishga harakat qilgani haqida to‘xtalib, N. “F.Sh.” dostonini yozish u-n “uzoq moziyga murojaat” qilgani, ko‘plab tarix-u afsonalarni o‘rganib, ularga ijodiy munosabatda bo‘lib, xalq manfaati nuqtayi nazaridan qarab asar yaratishga kirishgani aytiladi. Maqolada Firdavsiy va uning “Shohnoma”sidagi obrazlar (Kova, Jamshid, Rustam, Manija va b.) tahlil qilingan. Maqola muallifi N.ga va Nizomiy Ganjaviyning “Xamsa”si, unda ilgari surilgan g‘oyalar, Abu Rayhon Beruniy, Abunasr Forobiy va Ibn Sinolarning ta’sirlari ham bo‘lganini alohida ta’kidlaydi. Shuningdek, u Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiylarning ham N. ijodi va falsafasiga ta’siri kuchli bo‘lganini dalillagan.

To‘plamdagi maqolalardan yana biri prof. I. Sultonning “Navoiy va zamonamiz” (29–40-betlar) maqolasidir. Tadqiqotda N. doim haqiqat mezonlariga ko‘ra ish ko‘rgani, o‘z davri u-n qaltis va muhim bo‘lgan masalalarni ilgari surib, ularni umumxalq manfaatlari yuzasidan hal etishga uringani asoslab berilgan. Unda olim mutafakkir shoirning milliy til va adabiyotni rivojlantirishga alohida e’tibor berganiga diqqat qaratilgan hamda N. ijodining Renessansga munosabati masalasiga ham qisqacha to‘xtalgan.

Adabiyotshunos H.Yoqubovning to‘plamdan o‘rin olgan (41–52-betlar) maqolasida N. ijodining zamonaviy adabiyotga ko‘rsatgan ta’siri yetarli darajada o‘rganilgani, ayniqsa, N. an’analari masalasi mutlaqo diqqatdan chetda qolgani alohida ta’kidlanadi.

To‘plamda tojikistonlik akad. A.Mirzoyevning “Foniy va Hofiz” (53–62-betlar) maqolasi berilgan. Unda N.ning “Foniy” taxallusi b-n forstojik tilida yaratilgan g‘azallarini Hofiz g‘azallari b-n muqoyasa qilib o‘rganish masalasiga diqqat qaratilgan. Muallif maqolasini Navoiy “XV asr fors-tojik g‘azalchiligining eng buyuk vakillaridan biri sifatida fors-tojik adabiyoti tarixida ham munosib o‘ringa ega” deya xulosalaydi.

Ustoz A.Hayitmetov esa “Alisher Navoiy va Hasan Dehlaviy” (63–78-bet) nomli maqolasi b-n ishtirok etgan. N. asarlarida Hasan Dehlaviy ijodining hamohanglik, yaqinlik, g‘oyaviy ta’sirlanish kabi xususiyatlari to‘g‘risida fikr yuritadi. Olim N.ning Hasan Dehlaviy ijodiga munosabati masalasiga to‘xtalib, bu ularning “ijtimoiy va estetik ideallarining o‘zaro yaqinligi b-n” bog‘lanishini alohida ta’kidlaydi.

Akad. V.Abdullayev “Navoiy va Samarqand shoirlari” (79–87-betlar) maqolasida N.ning 1465–1469-yy.da Samarqandda yashagan davri hayoti va ijodi haqida fikr yuritib, samarqandlik shoir va olimlarning N.ga munosabati masalasini yoritadi.

N.shunos Y.Is'hoqov "Navoiy va Xusrav Dehlaviy" (88–106-betlar) maqolasida N.ning ijodiy kamolotiga asos bo'lgan salaflaridan biri – Xusrav Dehlaviyning unga ijobiy va samarali ta'siri masalasini tahlil qilgan. Muallif N.ni Xusrav Dehlaviy "poeziyasidagi nozik va original ifoda uslubi" maftun etganligini ta'kidlaydi. N. g'azalnavislik va xamsanavislikda ham Xusrav Dehlaviyni o'zining buyuk salaflaridan biri, deb bilganini uqtiradi. N. "X."sida Xusrav Dehlaviyga berilgan baholarga to'xtaladi. Xusrav Dehlaviy ijodi (uslub)ning N. g'azallariga ta'siri masalasi haqida gapirib, uning tatabbu'lariga to'xtaladi. Maqolada Xusrav Dehlaviy "Xamsa"sidagi dostonlarning N. "X."sidagi dostonlarga ijobiy ta'siri, ulardagi ayrim yaqinliklar va tafovutlar asosida ko'rsatilgan.

Prof. S.G'aniyevaning "Navoiy va Husayn Boyqaro" (107–117-betlar) maqolasida Sulton Husayn shoh va shoir sifatida gavdalanadi. Olima H.Boyqaro davridagi qurilishlar, ilm-ma'rifat, madaniyatga berilgan e'tibor; N. tashabbusi va ishtiroki b-n amalga oshirilgan obodonchilik, savdo-sotiq, fan, san'at, adabiyotning ravnaq topishi; Hirotning madaniy va adabiy markazga aylanishi haqida to'xtalib, Sulton Husayn she'riyatining o'ziga xos xususiyatlari; shoh va N. munosabatlariga alohida ahamiyat beradi. Maqola so'ngida Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan Sulton Husayn asarlarining mavjud qo'lyozmalari, asarlarining nashrlari haqidagi ma'lumot ilova qilingan.

Akad. B.Valixo'jayev "Alisher Navoiy va Shayxim Suhayliy" (121–143-betlar) maqolasida N.ning Sayyid Hasan Ardasher, Pahlavon Muhammad, Mirzobek, Ahmad Hojibeklarga bo'lgan munosabatlari, ayniqsa, uning Amir Nizomiddin Shayx Ahmad Suhayliyga, Suhayliyning esa N.ga bo'lgan samimiy muomala, munosabatlari chuqur tahlil qilingan. Maqolada Suhayliyning poetik asarlari haqida qimmatli mulohazalar mavjud.

Faylasuf olim M.Xayrullayev "Navoiy dunyoqarashining g'oyaviy manbalarini o'rganish haqida" (144–155-betlar) maqolasida n.shunoslar qo'lga kiritgan yutuqlari to'g'risida gapirib, shoir dunyoqarashining g'oyaviy manbalari, undagi asosiy tamoyil va yo'nalishlarning Yaqin va O'rta Sharqdagi ildizlarini ochishga e'tibor bergan. Muallif N. dunyoqarashining shakllanishida o'tmish merosni: Forobiy va Nizomiy, Rumiy va Jomiy asarlarini o'rganish, ulardagi ilg'or g'oyalarni rivojlantirish muhim rol o'ynaganini to'g'ri takidlaydi.

A.Abdug'afurov "Hajviyotda novatorlik va mahorat" (156–177-betlar) maqolasida N.gacha bo'lgan o'zbek hajviyoti, hajv va hazilning o'zbek xalq og'zaki ijodidagi tarixi, an'analari; Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'otit-turk", Lutfiyning "Gul va Navro'z", Atoiy, Gadoiy g'azallarida mavjud bo'lgan hajv va hazil belgilari; N.ning Haydar Xorazmiy asarlaridan ta'siri kabi masalalar haqida to'xtalib o'tadi. Muallif san'atkor shoirning o'ziga xosligi masalasiga to'xtalib, u "satira va yumorni badiiy tafakkurning muhim vositalaridan biri sifatida baholashi, uning ahamiyati va roli, vazifasi va o'rnini to'g'ri" tushunganini qator misollar b-n asoslab, "X.", "X.M.", "M.Q." asarlaridagi mavzuga tegishli o'rinlarning ayrimlarini tahlil qiladi.

To'plamdan o'rin olgan prof. S.Erkinovning "Sharq adabiyotida Farhod obrazining evolyutsiyasiga doir" (178–190-betlar) maqolasida Farhod haqidagi qissa Sharqda keng tarqalgani, Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Orif Ardabiliy, Shayxiylar o'z dostonlarida bu obrazga keng o'rin ajratganlari; Farhod qissasiga omil bo'lgan manbalar; Farhod nomi tilga olingan asarlar; folklor materiallari; N. yaratgan Farhod obrazi b-n qiyoslangan holda tahlil etiladi.

Adabiyotshunos Sh.Shukurov "Navoiyning "Tuhfat ul-afkor" qasidasi va uning adabiy an'ana bilan bog'liqligi to'g'risida" (191–205-betlar) maqolasida qasida janrining Sharq adabiyotida paydo bo'lishi, rivojlanishi; uning taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan shoirlar; N. qasidasi ("T.A.")ning Amir Xusrav ("Daryoyi abror"), Abdurahmon Jomiy ("Lujjat ul-asror")larning

shu janrdagi asarlariga munosabati, ularning mushtarakligi kabi mavzular haqida to‘xtalib, “Tuhfat ul-afkor”ni tahlil qiladi, shuningdek, Mirzo Bedilning “Savodi a’zam”, Fuzuliyning “Anis ul-qalb” qasidalarining badiiy yetuk jihatlarini yoritadi.

Adabiyotshunos T.Ahmedov “Layli va Majnun” dostonida an’anaviy tasviriy vositalarning ishlatilishi haqida” (206–221-betlar) maqolasida N.ning badiiy barkamol dostoni – “L.M.”da ishlatilgan ajoyib o‘xshatish, kuchli mubolag‘a, turli so‘z o‘yinlari, badiiy san’atlar va usullarni ochishga katta e’tibor bergan.

Olima N.G‘anixo‘jayeva “Navoiy hikoyalarida badiiy mahorat masalalari” (222–237-betlar) maqolasida N.ning hikoyatlarda badiiy obraz yaratish mahorati, hikoyatlarning syujet va kompozitsiyasi masalalari haqida fikr yuritgan. Muallif N. hikoyatlaridagi portret, peyzaj masalalariga ham e’tibor bergan. To‘plamda N. asarlarining til xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan “XV asr o‘zbek adabiy tilining dialektal asoslari masalasi” (238–257-betlar) nomli prof. Fattoh Abdullayevning maqolasi mavjud. Unda N. va Bobur asarlari tili o‘rtasidagi farq; N. asarlarining tili g‘oyat murakkab va dialektal jihatdan rang-barangligi hamda u bir dialekt yoki butun bir lahja doirasiga sig‘masligi; N. asarlari tilida hozirgi O‘zbekiston va qo‘shni respublikalarga tarqalgan jonli o‘zbek shevalarining xususiyatlari borligi; hozirgi qozoq, tatar, uyg‘ur, turkman, ozarbayjon, usmonli turk tillariga xos bo‘lgan leksik qatlam va grammatik shakllar XV asr o‘zbek tilida ma’lum miqdorda uchrashi; N. asarlari tilida qadimgi uyg‘ur va yozma yodgorliklar (runik yozuvlari)ni esga tushiradigan jihatlar mavjudligi; N. asarlari tilida boshqa yozma yodgorliklarda uchramaydigan grammatik jihatlar borligi; shuningdek, N. asarlari tilida urg‘udosh bo‘lmagan tillardan (arab va fors-tojik) so‘zlar olingani yoritilgan.

Prof. A.Rustamov “Navoiy tilining fonetik xususiyatlari” (258–278-betlar) maqolasida XV asr o‘zbek adabiy tilining fonetikasi hozirgi o‘zbek tili va X–XIII asrlar yodnomalari tilining fonetikasidan ba’zi xususiyatlari b-n farq qilishi; adib asarlari tilida mavjud bo‘lgan vokalizm va singormanizm masalalari; N.ning o‘sha vaqt o‘zbek tilidagi unlilari haqida ma’lumot berishi kabilar atroflicha yoritilgan.

Yirik tilshunos X.Doniyorov “Alisher Navoiy tilining dialektal asoslarini o‘rganish masalasiga doir” (279–292-betlar) maqolasida N. tiliga asos bo‘lgan sheva masalasini, bu sohadagi bahslarga munosabat bildirgan holda misollarga tayanib, “Alisher Navoiy tilining Andijon shevasiga mos bo‘lganligini isbotlovchi dalillardan yana biri... o‘sha vaqtda Andijon va Shahrisabz-Kitob shevalari o‘rtasidagina emas, Andijon b-n Samarqand va Buxoro, hatto Hirot shevalari o‘rtasida ham keskin farqlar unchalik bo‘lmagan”, deb xulosalaydi.

Prof. L.Qayumov “Navoiy va Hamza” (293–301 betlar) maqolasida Hamza Hakimzoda yoshligidan boshlab, N. lirikasi b-n xalq hofizlari va havaskor ashulachilar ijrosida aytilgan ashulalar tufayli otasi – Ibn Yamin kutubxonasida mavjud N. devonlari, keyinchalik madrasadagi darslar orqali tanishganligini hamda N. asarlarida ilgari surilgan insoniylik, adolatparvarlik, samimiy muhabbat motivlari Hamzani o‘ziga rom etganligi masalasini yoritadi.

Matnshunos P.Shamsiyev “Navoiy asarlarining yangi topilgan qo‘lyozmalari” (302–308-betlar) maqolasida N. asarlarining ilmiy-tanqidiy matnlarini yaratish asosiy vazifalardan biri ekanini ta’kidlaydi. P.Shamsiyev xorijiy davlatlar kutubxonalarida saqlanayotgan N. qo‘lyozmalaridan tashqari, “Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida yashovchi ilm va adabiyot muxlislari shaxsiy kutubxonalarida” mavjud qo‘lyozmalarni qidirib topib, ularning ilmiy qimmatini belgilash masalasini qo‘yadi. Maqolada Qozon universiteti fondidan topilgan N. “X.”si va “I.D.”ning qo‘lyozmalari, keyinchalik, boshqa devoni: “N.N.”ning eng qadimgi nusxasi topilgani to‘g‘risida batafsil ma’lumot berilgan.

Adabiyotshunos M.Mirzaahmedova “Hikoyachilikda Navoiy traditsiyalari” (309–323-betlar)

maqolasida N. merosining keyingi asrlar ijodkorlariga, xususan, proza va hikoyachilikdagi ta’siri masalasini qo‘yib, uni Xojaning “Miftoh ul-adl” hamda “Gulzor” asarlarida mavjud hikoyalar tahlilidan kelib chiqib ochib bergan. Muallif Xoja N.ga ergashganini, uning ijodidan hikoya yaratishdagi mahorat, qisqalik va ixchamlik, kichik shaklda katta mazmunni ifoda etish mahoratni o‘rganganini chuqur asoslab bergan.

Prof. E.Shodiyev “Navoiy va Xotifiy” (324–329-betlar) maqolasida taniqli tojik shoiri Abdulla Hotifiyning N.ga munosabati, N. ijodining Abdulla Xotifiy ijodiga samarali ta’siri masalalari haqida fikr yuritgan.

R.Orzibekovning (prof. N.Komilov b-n birga) “Fors-tojik adabiyotida Navoiyga izdoshlik tarixidan” (330–343-betlar) maqolasida N.ning fors-tojik va boshqa adabiyotlardan bahramand bo‘lgani; N.ga zamondosh bo‘lgan bir qator fors-tojik shoirlari esa uning ijodidan naf’ topganlari; keyingi asrlarda yashab ijod etgan juda ko‘p Buxoro, Samarqand, Xo‘jand, Hisor va boshqa hududlardagi shoirlar N.dan ijodiy ta’sirlangani haqida mulohazalar bildirilgan.

Adabiyotshunos T.G‘afurjonovaning “Nazm ul-javohir” (344–352-betlar) maqolasida N.ning didaktik asarlaridan biri – “N.J.”ning mavjud qo‘lyozmalari haqida ma’lumot mavjud. Maqolada mazkur asar mavzulariga ko‘ra tahlil qilinib, ma’lum darajada “X.”, “M.Q.” b-n qiyosiy o‘rganilgan.

Kitob N. ijodiga salaflari va zamondoshlarining hamda N.ning o‘zidan keyingi adabiyot vakillariga ta’siri va boshqa masalalarni o‘rganishga bag‘ishlanganligi b-n diqqatga sazovor.

Ad.: *Навоий ва адабий таъсир масалалари. – T., 1968.*

S.O‘.

NAVOIY VA ARMAN ADABIYOTI – Armanistonda N.ning nomi XVI asrdan e’tiboran ma’lum bo‘lgan. Lekin arman diyori, bu yerning tog‘li mavzelari, garchi afsonaviy tarzda bo‘lsa-da, N. u-n dilkash, ezgu xayol tarzidagi bir manzilgoh sifatida yaqin edi. Sharqda “Xusrav va Shirin” qissasining dastlabki manshalaridan boshlab Shirinni arman qizi sifatida talqin etilishi an’ana tusiga kirgan edi. Mehinbonu (Ulug‘beka) laqabiga ega bo‘lgan Shamira ham dostonlarda goh Ozarbayjon, goh Armaniya b-n aloqali holda talqin etiladi. N. u-n bu manbalar ma’lum bo‘lgan, albatta. N. Shirinni arman go‘zali tarzida tasvirlashda o‘zigacha mavjud an’anaga tayanadi. Shoir bu tog‘-lar o‘lkasini “Arman kishvari”, “Arman vodiysi” deb atar ekan, uni Eram bog‘iga tenglashtiradi. Farhod Shirinni izlab bu yerga kelar ekan, tog‘da ariq qazuvchilar unga: “Ki holo Armaniya derlar oni”, deb xabar beradilar. N. Armaniya manzaralarini o‘z qarashlaridan kelib chizadi, ya’ni u tog‘ etagida joylashgan o‘ttiz-qirq qo‘rg‘ondan iborat manzil. Shirin shu o‘lkaning malikasidir. N. Farhodning Armaniyaga kirib kelishi b-n bu o‘lkaga, uning odamlariga, bu yerlardagi hayot tarzi tasvirlariga yaqinlashib boradi:

Havosi jonfizo, gulanda xirman,
Nazokatda Eramtek, oti – Arman.

Quyidagi soqiyga murojaat tarzida bitilgan misralar ham g‘oyat xarakterlidir:

Meni chun qildi mohi armani zor,
Chekay bir necha sog‘ar armanivor.

N. vafotidan keyin ko‘p o‘tmay shoir asarlarining G‘arbga qarab odim otishida arman adiblari, tarjimon shoirlari katta rol o‘ynaganlar. 1557-y. da Venetsiyada nashr qilingan “Sarandip shohi uch o‘g‘lonining sayohati” asarining arman tarjimoni Xristofor fors tilidan italyan tiliga o‘girgan edi. Prof. Y.E.Bertelsning ta’kidlashicha, bu kitobning 1-bo‘limida Xusrav Dehlaviyning “Hasht bihisht”, ikkinchi qismida esa N. “S.S.”idan hikoyalar bayon qilingan. 1910-y.da atoqli arman shoiri Avetik Isaakyanning mo’jaz “Layli va Majnun” dostoni yuzaga keldi. Sharq afsonalari asosida yaratilgan bu dostonda Nizomiy “Layli

va Majnun”ining o‘rni kuchlidir. Shoir Sharqda keng tarqalgan sevgi fojiasi qissasi ustidagi ishida N. dostoniga ham murojaat qilgani shubhasiz.

Hamid Olimjon o‘zining “Parallellar” deb atalgan maqolasida armanlarning nodir obidasi “Sosunli Dovud” b-n “F.Sh.” o‘rtasidagi bir qator yaqinliklarni ikki xalqning badiiy tafakkur yaqinligi nishonalari sifatida ko‘rsatib o‘tgan edi.

“Sosunli Dovud” eposida arman xalqining sevimli qahramonlariga aylanib qolgan to‘rt avlod vakillari maydonga chiqadilar (Sanasar, Katta Mger, Dovud, Kichik Mger). Ular xalqni suvsizlik ofatidan qutqarish yo‘lida jonbozlik ko‘rsatadilar, tashqi dushmanga qarshi mardlarcha kurashadilar. Sosun qahramonlari faoliyatidagi bu tasvirlar “F.Sh.” dostonidagi Farhod va butun arman xalqining g‘ayrat va shijoati tasvirlariga g‘oyat hamohangdir.

Armanistonda N. asarlariga bo‘lgan qiziqish sira susaymagan. Buni Armanistonning Matenadaran qo‘lyozmalar fondida N. asarlari qo‘lyozmalarining avaylab-asralishidan bilsa ham bo‘ladi. “Men Matenadaranda qo‘lyozmalar bilan tanishar ekanman, – deb yozadi arman adibi Grigoriy Egiazaryan, ko‘pgina nodir asarlar qatori o‘zbek xalqining genial shoiri N.ning ham nihoyatda aziz, qimmatbaho bo‘lgan qo‘lyozmasi bilan tanishdim. Uni qiziqib, ixlos bilan o‘qidim. Qarang, qanday oliyjanob, mo‘tabar kishi”.

Matendaranda N.ning lirik merosi, “X.” dostonlarining turli davrlarga oid qo‘lyozmalari saqlanadi. Armanlar N. asarlarida kuylangan insonparvarlik, vatanparvarlik, do‘stlik g‘oyalarini nihoyatda qadrlaydilar. Xususan, ulug‘ o‘zbek shoirining “F.Sh.” dostonida kuylangan go‘zal arman qizi Shirin b-n Farhod o‘rtasidagi fidoyi sevgi va do‘stlik ta’rifini har bir armandan eshitish mumkin. “Qarang, doston bosh qahramonlaridan biri sohibjamol Shirin arman qizi-ku! Shunga ko‘ra, armanlar ham o‘z navbatida o‘zbek xalqining bu buyuk kuychisiga doimo muhabbat bilan qaraydi”, – deb yozadi Arshaluys Saroyan. Arman adibi Mkrtich Koryun “Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida armanlar” deb nomlangan maqola yozgan.

Armanistonda N.ning lirik asarlari, “X.” dostonlaridan tarjimalar mavjud. Jumladan, M.Koryun “F.Sh.” dostonini arman tiliga tarjima qildi. Ulug‘ o‘zbek shoiri tavalludining 550 yilligi oldidan esa Vagan Davtyan N.ning ellik yettita g‘azalini arman tiliga tarjima qildi va u 1991-y. alohida kitob sifatida bosmadan chiqdi.

1961-y.ning kuzida O‘zbekistonda Armaniston adabiyoti haftaligi, 1962-y.ning kuzida esa Armanistonda o‘tgan o‘zbek adabiyoti haftaligi kunlarida qardosh arman xalqining o‘zbek adabiyoti va madaniyati hamda N. merosiga bo‘lgan katta e’tiqodi yana bir marotaba sinovdan o‘tdi.

1962-y.ning oktyabr oyida Armanistonga tashrif buyurgan o‘zbek adabiyoti va san’ati namoyandalari Aragats tog‘lari etaklaridan o‘tib, Shiroq vodiysiga kirishlari b-n ularni Uzuntola qishlog‘idagi keng maysazorda leninakanlilar kutib oladilar. Shu payt uzoqdan foytun ko‘rinadi. Foytun yaqinlashgan sayin uning orqa o‘rindig‘ida boshida salla, qo‘lida aso tutgan N. siymosi paydo bo‘ladi. Alisher bobo o‘z yurtdoshlarini kutgani chiqqan edi. Suhbat davomida Alisher bobo mehmonlarga o‘z sarguzashtlarini so‘zlab beradi. Hirotdan Armanistonga kelgani, bu yerda Shirin va Farhodlar qahramonliklarini kuylab yashayotganligini aytadi. Albatta, bular ramziy edi – arman xalqining N.ga katta mehr-muhabbati namoyishi edi. N. tavalludining 550 yilligi kunlarida Armaniston Respublikasi qoshidagi Vatandoshlar komiteti Armaniston Yozuvchilar uyushmasi b-n hamkorlikda shoir yubileyini o‘tkazdilar. Ushbu tantanalarda ishtirok etgan O‘zbekiston vakillari u yerda N. haqidagi samimiy so‘zlarni, N. sha’niga aytilgan qo‘shiqlarni tinglab, Spitak shahrida N. nomiga qo‘yilgan ko‘chani ziyorat qilib, N. va uning merosiga bo‘lgan rag‘bat-e’tiborning yangi bir namoyishiga guvoh bo‘lib qaytdilar. Tantanalarda ishtirok etgan prof. A.Hayitmetov “Navoiy O‘rta Osiyo va o‘zbeklar uchun Armaniyani kashf etgan edi” deb yozadi. O‘zbek kitobxonlari armanlarning “Sosunli Dovud” eposidan boshlab bugungacha bo‘lgan barcha badiiy obidalarini yuksak qadr-

laydilar. Nairi Zaryanning “She’riyatda Alisher Navoiydek shoirni yetkazib bergan xalq har qanday poetik boyliklarni lozim darajada baholashga qodirdir” degan so‘zlari diqqatga sazovordir.

Ad.: *Корюн М. Алишер Навоийнинг “Фарҳод ва Ширин” достонида арманлар // Литературная Армания, 1961, №10.; Сароян Аршалуйс. Дўстлар диёрида // Ўзбекистон маданияти, 1962-йил 21-октябрь; Насриддинов Ф. Қон-қардошлар // Ўзбекистон маданияти, 1962-йил 10-ноябрь; Ҳайитметов А. Спитакдаги Навоий кўчаси // Ўзбекистон овози, 1991-йил 26-сентябрь.*

S.O‘.

NAVOIY VA BELORUS ADABIYOTI – N.ning hajm jihatidan benihoya katta va janrlarga boy merosi belorus xalqiga muayyan darajada tanish. XX asring 2-choragidan boshlab Belorussiyada N. ijodini o‘rganishga jiddiy kirishilgan. Xususan, 1938-y.ning 27-dekabrida Minsk shahrida chiqadigan Belorussiya Yozuvchilar uyushmasining ta’sischi gazetasi “Література і мостацва”da X.Akbashevning “Ulug‘ o‘zbek shoiri” maqolasi e’lon qilinib, N.ning hayot yo‘li va ijodi haqida qisqacha ma’lumot berilgan. Ikkinchi Jahon urushi yillarida vaqtincha O‘zbekistonga ko‘chib kelgan belorus adabiyoti, san’at va ilm ahllari o‘zbek madaniyati tarixi b-n yaqindan tanishib, N.ning 500 yilligi yubileyi munosabati b-n belgilangan tadbirlarda faol qatnashishgan. 1948-y. Belorussiyada N. tavalludi matbuot sahifalarida qator ilmiy maqolalarning paydo bo‘lishi, N. asarlarining belorus tiliga tarjima qilinishi va nashrlari b-n nishonlandi. Shu yili “Література і мостацва” gazetasining 15-may sonida A.Boldirevning “Alisher Navoiy” deb nomlangan maqolasi bosildi. Belorus matuboti sahifalarida Oybekning N. hayoti va ijodiga bag‘ishlangan suhbati, “Полымя” jurnalining 6-sonida M.Klimovich tarjimasida N. ning “F.Sh.” dostonidan parchalar chop etilgan. 90 misralik tarjima Farhodning Armaniston tog‘ bag‘irlarida toshlarni qo‘porib ariq ochish epizodini qamrab olgan bo‘lib, ayni shu lavhaning tanlab olinishi tasodifiy emas. Hadsiz mashaqqat, qiyinchiliklarni yengib, maqsad tomon dadil intiluvchi Farhodning g‘ayrat-shijoati urush oqibatida vayron bo‘lgan Minsk shahri, qolaversa, butun belorus xalq xo‘jaligini mashaqqat b-n yangidan tiklayotgan omma u-n ruhlantiruvchi ma’naviy omil bo‘lishi ko‘zda tutilgan. 1951-y. “Палесская правда” gazetasining 3-yanvar sonida A.Minichevning “Alisher Navoiy” sarlavhali maqolasi e’lon qilingan bo‘lsa, 1967-y.ga kelib, N. tavalludining 525 yilligi nishonlanishi arafasida belorus matbuotida N. merosidan yangi namunalar paydo bo‘ldi. “Нёман” jurnalining 5-sonidan o‘rin olgan g‘azallarning rus tiliga tarjimonlari B.Pasternak va N.Ushanovlar, “Soqiy haqidagi qo‘shiqdan” va “Ruboiylar” atamasi ostida berilgan tarjimalar esa L.Penkovskiy tomonidan amalga oshirilgan.

N. lirikasining Belorussiyada sevib o‘qilishida taniqli belorus shoiri R.Borodulin va V.Semuxilarning tarjimonlik mahoratini ta’kidlash lozim. Jumladan, ularning tarjimalari orasida 1986-y. Minskda nashr etilgan “Вясёлка над арыком” to‘plamidan o‘rin olgan “Скажи о зефир, гетай вел чнасмуглай, скажи”, “Я к светале душу ное как дающь люда”, “Ты загола мне раны, як свет, як солнцам, азарыла” misrasi b-n boshlanuvchi g‘azallar va hikmatlar mazmunan asliyatga yaqinligi b-n ajralib turadi. Shuningdek, mashhur belorus shoiri va tarjimoni Vasil Jukovich N. lirik asarlaridan turkum tarjimalar qilib, e’lon qilgan. Hatto mazkur tarjimalarning ayrim namunalari Toshkentda “Xalq so‘zi” gazetasining 1991-y. 26-yanvar sonida kitobxonlar e’tiboriga havola etilgan. M-n, N.ning “Meni men istagan o‘z suhbatiga arjumand etmas” misrasi b-n boshlanuvchi g‘azali matla’si Vasil Jukovich tarjimasida shunday ifodalangan:

Зь ким гананий бы я, ня хеча той,
яго са мной няма,
Того же, хто жар души дзянит со мной – о
души моей нема.

Tarjimaning muvaffaqiyati uning matla' misralaridanoq ochiq ko‘zga tashlanib turibdi.

1968-y.ning 20-sentyabrida "Література і мостацва" gazetasida nashr qilingan o‘zbek olimi S.Qosimovning "Jahon adabiyotining titani" maqolasi esa belorus o‘quvchisini N. ijodidan bahramand etishni maqsad qilib oladi. Olim Sharqda "X." an'anasi asosida yozilgan asarlar haqida so‘z ochib, bu silsilada N. "X."sining o‘ziga xos tutgan o‘rni masalasiga alohida ahamiyat beradi, fors tilida "X." yozgan ulug‘ ozarbayjon shoiri Nizomiydan bahs etadi, turkiy tilda ijod etgan shoirlar o‘rtasida esa "X." yaratish N.ga nasib bo‘lganini ta'kidlaydi. Tadqiqotda bayon etilgan N. "X."sidan o‘rin olgan dostonlar va ularning ilmiy-ommabop mohiyati haqidagi fikrlar ham belorus kitobxoni u-n o‘zbek adabiyotining yangi sahifalarini ochib bergan.

Belorussiyada N. merosiga bo‘lgan katta qiziqish va e'tiborning yorqin bir ko‘rinishi sifatida "Belorus ensiklopediyasi"ni ko‘rsatish mumkin. Ushbu ensiklopediyaning VII jildida N.ga munosib o‘rin ajratilgan. Jumladan, N.ning portreti b-n berilgan maqolada shoirning hayot yo‘li, lirik devonlari, "X."si va falsafiy mundarijaga ega bo‘lgan asarlari haqida ma'lumot keltirilgan.

2019-y. Belorussiya va O‘zbekiston davlatlari 1-forumida Minsk shahridagi Sverdlov shohko‘chasiga o‘rnatilgan N. haykal-byustining tantanali ochilish marosimi o‘tkazilgan. Mazkur byust yodgorligi yosh haykaltarosh Maksim Makarevich loyihasi doirasida yaratilgan. Belorus Milliy Assambleyasi Kengashining raisi o‘rinbosari Marianna Shetkinaning ta'kidlashicha, "O‘zbekistonning buyuk farzandi, mutafakkir N. haykalining ochilishi yorqin va sharafli voqeadir. U nafaqat shoir, balki buyuk insonparvar ham edi. Uning asarlari dunyoning ko‘plab tillariga tarjima qilingan. U o‘zining chuqur falsafasi, rangbarang obrazlari b-n bugun ham ko‘pchilikni o‘z asarlariga jalb qilmoqda. Ishonch b-n aytishimiz mumkinki, bu butun insoniyatning merosidir, madaniy xazinasidir".

Ad.: *Белорус энциклопедияси. VII жилд (белорус тилида). – Минск, 1973. Турбика Л.Н. Қардошлик ришталари. Ўзбекистонда белорус кунлари // Халқ сўзи. 1991-йил 26-январь.*

S.O‘.

NAVOIY VA BOSHQIRD ADABIYOTI – Boshqird xalqi turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lgani u-n mumtoz chig‘atoy adabiyotiga o‘z milliy xazinalari o‘laroq munosabatda bo‘lishgan. Tabiiy, bu adabiy merosning saqlanishi, tadqiqi va targ‘ibida ham ana shu milliylik yaqqol ko‘rinadi. Zotan, Boshqirdistonda N. ijodiga alohida qiziqish b-n qaraladi. Ayniqsa, o‘tgan asrda Rizo Faxriddinov (1859–1936) va Ahmad Zaki Validiy (1890–1970), N.Tixonov, I.G.Galyautdinov, S.Kudash singari olim va ijodkorlar N. adabiy merosini o‘rganish va keng yoyishga ulkan hissa qo‘shdilar. 1908-y. yanvar oyidan Orenburgda chiqa boshlagan "Sho‘ro" ("Kengash") jurnalining muharriri – mintaqadagi taniqli yozuvchi, jurnalist, musulmon dinshunosi va adabiyotshunosi R.Faxriddinov ("Mashhur shaxslar va buyuk voqealar") ruknini ochib, o‘tmish va hozirgi davrning 163 nafar Sharq va Yevropa olimlari, shoirlari, yozuvchilari, davlat arboblari hayoti va ijodi qatorida N. haqidagi biobibliografik ma'lumotlar b-n tanishtirdi. Xususan, 1909-y. jurnalda R.Faxriddinovning "Alisher Navoiy" (7-son, 513–515-betlar) maqolasi bosilib, uning tarjimayi holi, adabiy turkiy tilni asrab-avaylash va rivojlantirish yo‘lidagi islohotchilik faoliyati bayon etilgan. Olim o‘z xulosalarini jamlab, shunday yozadi: "... Navoiy turk bolasi mutlaq turkcha yozish, o‘qishni o‘rganishi lozimdir, deya da'vat etgan. Buni bilfe'l isbot etmoq va yo‘l ko‘rsatish maqsadida bir qancha asarlar yaratgan. Shu jihatdan Alisher turk adabiyotining negizini qurgan". R.Faxriddinovga ko‘ra, chig‘atoy (eski o‘zbek) tilida o‘ziga xos adabiy asarlar, ilmiy risolalar yaratgan N. tilshunos sifatida faoliyat ko‘rsatib, shu orqali turkiy tilning leksik, morfologik, uslubiy va she'riy imkoniyatlarini egallagan, uch til

– arab, fors va turk tillarini mukammal bilgan N. o‘z ijodini forsiyzabon shoir sifatida boshlagan, klassik fors she’riyatining texnikasi va obrazli tuzilishini puxta egallagan. Biroq u eski madaniy an’analar yemirilib, yangi milliy madaniyatlar shakllangan davrda yashab, hech qachon arab tilida asar yozishga urinmagan. Olimning xulosa qilishicha, o‘rta asrlar turkiy adabiy tillari tarixida yuksak bosqich – chig‘atoylar davrining oltin davri bo‘lgan “Beshlik” (“X.”) N.ning she’riy faoliyati b-n chambarchas bog‘liq bo‘lib, doston o‘zbek va boshqa turkiy adabiyotlar taraqqiyotiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Markaziy Osiyo yozma madaniyatining, shu jumladan, N. asarlarining yana bir targ‘ibotchisi, atoqli sharqshunos Ahmad Zaki Validiydir. Qozon universiteti qoshidagi arxeologiya, tarix va etnografiya jamiyati 1913-y.da Ahmad Validiyni arxeografik tadqiqotlar olib borish u-n Turkistonning Farg‘ona viloyatiga, 1914-y.da Buxoro xonligiga yuboradi va u arxeografik ekspeditsiya materiallari asosida bir qancha maqolalar yozadi. Uning fikricha, turkiy yozma adabiy tilning shakllanishida mumtoz turkiy she’riyat mualliflari Lutfiy, N., Bobur va Maxtumquli ijodi katta rol o‘ynagan (№10, 114–118).

Hozirda Rossiya Fanlar akademiyasining Ufa ilmiy markazining ilmiy kutubxonasida N.ning “G‘.S.” (“Yoshlik g‘aroyibotlari”; formati 35,6 x 57,8 sm., 149 varaq, kod RB 1475), bir nechta devonlardan tarkib topgan “X.M.” (“Ma’nolar xazinasi”), va “Xamsa”ning litografik nashri (“Пятерица”, Toshkent, 1905, 508-bet; kod rB1299) mavjud. A.Z.Validiy nomidagi Milliy kutubxonada “S.S.” (“Yetti sayyora”; formati 26 x 15,5; 171 varaq, kod 123/1226) dostonining Nizomiy “Yetti go‘zal” asariga nazira tarzida yozilgan, “Bahrom hikoyati” (“Bahrom qissalari”) nomli shartli sarlavha ostida saqlanuvchi qo‘lyozma, Namangan shahrida Boboxon Muhammad Amin tomonidan 1849-y.da ko‘chirilgan Xusrav Dehlaviyning “Sakkiz jannat”i va N. “X.” (“Пятерица”, Toshkent, shrift-litografiya Portsev, 1893; format 25 x 44; 508 b., kod 177/4566)sining qo‘lyozmalari saqlanadi. Vaqtli matbuotda ham boshqird va rus tillarida N. she’rlaridan namunalar, shoir haqida ko‘plab maqola, ocherk, o‘zbek tilida yaratilgan badiiy asarlardan qilingan tarjimalar nashr etilgan (Навои. А. “Көмбәҙеңдең түшәмдәрен биҙәй йондоҙ…” : [шиғырҙар] / А. Навои // Ағиҙел. – 2003. – № 10. – Б. 121–123.; Навои А. Фархат һәм Ширин : шиғыр / А. Навои // Октябрь. – 1941. – № 2. – Б. 47–52.; Навои А. Фәрһәдтең тәрбиә алыуы / А.Навои // Ҡыҙыл Башҡортостан. – 1941. – 30 март.; Галяутдинов И.Г. Восточные рукописи и творческое наследие А. Навои в Башкортостане / И.Г.Галяутдинов // Проблемы востоковедения. – 2011. – № 3. – С. 43-47.; Кудаш С. Памятник Навои : [стихи] / С. Кудаш // Вершины / пер. Н.Борискина. – Уфа, Башкнигоиздат, 1978. – С. 215-216.).

Prof. I.Galyautdinovning xabar berishicha, N.ning adabiy merosi hozirda Boshqirdistondagi oliy o‘quv yurtlarida o‘rganiladi va u haligacha turkiy adabiyotlar rivojiga ruhan ta’sir ko‘rsatmoqda.

Ad.: *Галяутдинов И.Г. Восточные рукописи и творческое наследие Алишера Наваи в Башкортостане. – Проблемы востоковедения. 2011. № 3 (53); Баимов Р.Н. Восточная литература. Материалы по истории индийской, иранской, арабской и тюркской литератур с древнейших времен до середины XVII века: учебно-методическое пособие. – Уфа, 1999; Баишев Ф.Н. Общественно-политические и нравственно-этические взгляды Ризы Фахретдинова. – Уфа, 1996; Булгаков Р.М., Галяутдинов И.Г. Описание восточных рукописей Института истории, языка и литературы. Ч. 1. Тюркские рукописи. Раздел первый. Произведения XII – начала XVIII века. Раздел второй. Произведения XIX-XX веков. Раздел третий. Башкирские родословные XIX – начала XX века. – Уфа., 2009. – 2-е изд. стереотип. – Уфа., 2010.*

G.S., S.O‘.

NAVOIY VA GRUZIN ADABIYOTI – Gruzin adabiyotida N.ning boy merosiga bo‘lgan qiziqish shoir vafotidan keyin ko‘p o‘tmay boshlangan. Gruzin ziyolilari va adiblari XV asrda Xuroson va Movarounnahrda ravnaq topgan madaniy va adabiy hayotdan xabardor bo‘lganlar. Gruziyada musulmon sharqi xalqlarining fani va madaniyatiga bo‘lgan katta e’tibor Shota Rustaveli davrlaridan boshlanadi. Gruzin kitobxonlari Firdavsiy “Shohnoma”si, Nizomiy dostonlari va ularning qahramonlariga muhabbat b-n qaraganlar. Bu yerda “Shohnoma”ning “Rustamiani” nomi b-n shuhrat tutgani haqida ma’lumotlar bor. Shu o‘rinda XVI asrda Vaxtang VI hukmronligi davrida Ulug‘bekning “Ziji Ko‘ragoniy” astronomik jadvalining gruzin tiliga tarjima qilinishi diqqatga sazovor adabiy hodisa bo‘lgan.

Gruzin tilida mavjud manbalar N. va uning asarlariga e’zoz b-n qarab kelinganini ko‘rsatadi. Gruzin mumtoz adabiyotining atoqli namoyandasi Nodar Sitsishvili (vafoti 1658-y.) o‘zining 1646–1656-yy. davomida yaratgan “Baramguriani” dostoni muqaddimasida asarni qanday va qaysi an’analarga tayanib yaratganiga ishora qilib, quyidagilarni yozadi: “Aql bovar qilmaydigan bu murakkab qissani donolarning donosi Nizomiy Ganjaviy fors tilida yaratdi. Unga Xusrav Dehlaviy ergashib, o‘tkir til va ajoyib tasvir b-n shu nomdagi poetik asarini yuzaga keltirdi. Lekin bulardan qaysi birining asari afzal ekanligini aytish mushkul. Chig‘atoy tilida esa bu qissani Navoiy qalamga oladi. Bu she’riy mumtozning o‘xshashi topilmasa kerak”. Nodar Sitsishvilining “Baramguriani” asarining N. dostoni b-n bog‘lanish darajasini belgilash nihoyatda muhim manbadir. Gruzin olimi K.Kekelidze o‘zining “Alisher Navoiy qadimgi Gruzin adabiyotida” deb nomlangan maqolasida bu xususda diqqatga loyiq ma’lumotlarni keltiradi.

N.Sitsishvilining Bahrom haqidagi dostonida qoliplovchi syujet bo‘lmish Bahrom va Diloromning sevgi sarguzashtlari bayon qilinishi N. tasvirlariga muvofiqdir. Moniy obrazining hikoya davomidagi o‘rni ham aynan N. talqinlarini esga soladi. N.Sitsishvili asaridagi uchinchi hikoyatda Navzar va Naim kabi ikki shohning munosabatlari, ularning balog‘atga yetgan farzandlarining chigal taqdirlari hikoya qilinadi. Shahzoda Olmos Jabor (Jobir) qo‘lida tutqunlikda bo‘lgan ma’shuqasini ozod qilish yo‘lida kurashga bel bog‘lab, o‘zi ham asirga aylanadi. Qizning tadbirkorlik b-n olib borgan ishlari natijasida ular ozodlikka erishadilar. Bu talqinlar N. “S.S.”dagi beshinchi maqolatdagi tasvirlarga to‘liq muvofiq keladi. Faqat qahramonlarning nomlaridagina ayrim o‘zgarishlarni ko‘rish mumkin. Gruzin shoiri dostonidagi birinchi hikoyat Nizomiy “Haft paykar”idan olinib, ayrim epizodik qo‘shimchalar qilingani kabi N. “S.S.”idagi birinchi hikoyat N.Sitsishvili tomonidan ikkinchi hikoya tarzida berilgan. Umuman, “Baramguriani” dostoni ko‘p jihatdan N. va Nizomiy asarlariga asoslanadi. Gruzin olimi A.Baramidze “Navoiy va Gruzin adabiyoti” mavzusidagi tadqiqotida N. asarlari va bir qator gruzin shoirlari o‘rtasidagi hamohanglik haqida so‘z ochib, Gruzin ishqiy-romantik dostonlarida Farhod obraziga tez-tez murojaat etish, uni bahodirlikda, ishqqa vafodorlikda namuna qilib olish an’ana tusini olganini eslaydi.

Sankt-Peterburgdagi Saltikov-Shchedrin nomidagi kutubxonada saqlanayotgan M.Sabinin kolleksiyasida 18723 inventar raqami b-n qayd qilingan qo‘lyozmalar mavjud. XVII asrda ko‘chirilgan gruzin tilidagi bu qo‘lyozmada Farhod nomi b-n bog‘liq bir afsona ham keltirilgan. Afsona Nizomiy va N. dostonlari ta’sirida maydonga kelgan Sharq farhodnomasining gruzin xalqi o‘rtasida tarqalgan o‘ziga xos nusxasi bo‘lishi b-n xarakterlidir. XVIII asr gruzin shoiri Teymuraz (1589–1663) “Leylmadjnuniani” (“Layli va Majnun”) nomi b-n doston yozgan. Manbalarda bu shoirning Astrobodda vafot etgani qayd qilinadi. Ushbu asarda ham N. “L.M.”ning ta’sirini kuzatish mumkin. Gruzin tilidagi XVII asrga oid “Iosifzilixaniani” (“Yusuf va Zulayxo”) asarida N. dostonining qahramoni Farhod katta muhabbat b-n qalamga olinadi. XVIII asr gruzin shoiri

V.Gabashvilining ham o‘z asarlarida N. qahramonlarini eslashi diqqatni tortadi.

Bugungi kunda Gruziya Fanlar akademiyasi K.Kekelidze nomidagi Qo‘lyozmalar institutining musulmonlar fondida N. asarlarining 20 dan ortiq qo‘lyozmalari saqlanadi. Ular orasida “X.M.” va undan saylab olingan “Chor devon” (Shoir lirik asarlarining muxtasar to‘plami), “F.Sh.”, “S.I.”, “M.N.”, “M.”, “V.” asarlarining qo‘lyozmalari mavjud. Gruziyadagi fondlarda saqlanayotgan N. asarlarining qo‘lyozmalari ularning mundarijasi va ko‘chirilish davriga ko‘ra Sankt-Peterburg va Toshkent fondlaridan keyingi ahamiyatli o‘rinni egallaydi. Bu yerda saqlanayotgan qo‘lyozmalarning ko‘pi mukammal bo‘lib, ko‘chirilish davri jihatidan shoir vafotidan keyingi uncha uzoq bo‘lmagan sanalarga to‘g‘ri keladi. Institut fondida N.ning lirik asarlaridan iborat devonlarining bir necha qo‘lyozmalari mavjud bo‘lib, bir devonning ko‘chirilish vaqti 1576-y.dir. Mazkur qo‘lyozma “X.M.”ning mukammal nusxasi bo‘lib, unga “V.”, “X.”dan esa “F.Sh.” hamda “S.I.” dostonlari qo‘shib muqovalangan.

Qo‘lyozmalar xazinasidagi eng qadimgi deb hisoblash mumkin bo‘lgan asar “M.”dir. Hijriy 929-y.ning muharram oyi (1519-y.ning dekabri)da ko‘chirilgan. Mazkur nusxa asarning Sankt-Peterburgdagi asosiy kutubxonada saqlanayotgan qo‘lyozmadan keyingi o‘rinda turadigan e’tiborga loyiq nusxadir. Bundan tashqari, fondda “M.N.”ning ham ikkita qo‘lyozma nusxasi mavjud. N. tavalludining yubileylari Gruziyada munosib ravishda nishonlanib kelinadi. 1946-y.da N.ning “F.Sh.” dostoni Gruzin tilida (tarjimonlar: A.Abasheli, Gr.Abashidze, S.Euli, H.Vardoshvili, I.Moseshvili, K.Nadiradze, G.Setsxladze va K. Chichinadze) chop etilgan. Shuningdek, N.ning lirik asarlaridan namunalar ham gruzin tiliga o‘girilgan. Toshkentda 1966-y. zilzilasidan keyin Shota Rustaveli ko‘chasiga tutash Teatr maydonida gruzinlar tomonidan bunyod etilgan monumentga xalqning ikki buyuk dahosi – N. va Shota Rustavelining nomlari yozilgani N. va Shota Rustaveli o‘zbek va gruzin xalqlari o‘rtasidagi uzoq tarixga ega do‘stlikning ramzi ekanidan dalolat beradi.

Ad.: *Кекелидзе К., Алишер Навоий қадимги Грузин адабиётида. Қадимги Грузин адабиёти тарихига оид этюдлар. – Тбилиси, 1945; Барамидзе А. Алишер Навоий Грузин адабиётида. Грузин адабиёти тарихи бўйича очерклар. – Тбилиси, 1952; Барамидзе А., Радиани Ш, Жгенти Б. История грузинской литературы. – Тбилиси, 1958; Алиев Г. Тема и сюжеты Низами в литературах Востока. – М., 1985.*

S.O‘.

“NAVOIY VA IJOD SABOQLARI” (Ilmiy to‘plam. Mas’ul muharrirlar: O‘zR FA akad. Vohid Zohidov, f.f.d-ri A.Hayitmetov. – Toshkent: Fan, 1981.) – Kitobda N.ning she’riy va nasriy asarlari badiiyati, “X.”sidagi ijobiy qahramonlarining xarakter-xususiyatlari, rasmiy devonlariga kirmagan bir qator she’rlari, ulug‘ shoirning o‘zidan keyingi ijodkorlarga ko‘rsatgan ta’siri kabi masalalar tadqiq etilgan. V.Abdullayevning “XV asrda Samarqand va Buxoroda she’riyat”, A.Hayitmetovning “Navoiy lirikasining ba’zi masalalari”, Y.Is’hoqovning “Navoiy lirikasida kompozitsion-stilistik san’atlar”, E.Shodiyevning “Navoiy va Xo‘jand shoirlari”, I.Haqqulovning “An’ana va mahorat”, V.Mo‘minovning “Ulkan ta’sirning qirralari” nomli maqolalarida she’riyatni o‘rganish yo‘nalishida bahs yuritilgan. Bir qator maqolalar esa bevosita “X.”ga tegishli mavzular tadqiqiga bag‘ishlangan. Bular: B.Valixo‘jayevning “Xamsa”chilik an’anasining ayrim xususiyati”, T.Ahmedovning “G‘oyaviy niyat va ijobiy obraz”, M.Mirzaahmedovaning “Navoiyning “Hayrat ul-abror” va Xojaning “Maqsad ul-atvor” asarlari”, J.Nag‘iyevaning “Navoiy “Xamsa”si va undagi alohida dostonlarning Bokudagi qo‘lyozma nusxalari” deb atalgan maqolalardir. S.G‘aniyevaning “Nasr va badiiyat” (“Munshaot” asosida), H.Yoqubovning “Hozirgi o‘zbek poezi-

yasida Navoiy gumanistik traditsiyalari problemasiga doir” va B.Bafoyevning “Navoiy asarlari leksikasining ba’zi masalalari” maqolalari mazmun-e’tibori b-n to‘plamdagi boshqa tadqiqotlardan nisbatan farq qiladi. Ma’lumki, N. hayoti va adabiy-ilmiy merosini izchil o‘rganish, keng xalq ommasi orasida uni targ‘ib va tashviq qilishni ilmiy tarzda tashkil etish u-n O‘zR FA Prezidiumi qoshida N. qo‘mitasi (1956-y.) ta’sis etilgan. Shuningdek, Til va adabiyot institutida ham shunday qo‘mita faoliyat ko‘rsatgan. Ularning tashabbusi b-n har yili N. tug‘ilgan kuni – 9-fevralda n.shunoslarning ilmiy anjumanlari – N.ning serqirra merosini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy-an’anaviy konferensiya o‘tkazilgan. Kitob oxirida shu konferensiyalarda 1957–1981-yy.da tinglangan ma’ruza va axborotlar ro‘yxati ilova qilingan. Uni f.f.d-ri S.G‘aniyeva tayyorlagan.

Ad.: *Навоий ва ижод сабоқлари. – T., 1981.*

I.H.

“NAVOIY” VIDEOFILMI 1982-y.da suratga olingan. Mazkur videofilm Oybekning “N.” romani asosida yaratilgan, 20 qismdan iborat. Har bir qismi 30 daqiqadan tashkil topgan. Ssenariy muallifi va postanovkachi rejissyor M.Yunusov, postanovkachi operatorlar T.Qurbonov va S.Umarov, postanovkachi rassom S.Rasulovdir. A.Qayumov, A.Hayitmetov, A.Rustamov kabi atoqli n. shunoslar videofilmda bosh konsultant bo‘lishgan. Albatta, bu adabiyotshunoslarning maslahatlari, N.ning hayoti va ijodi haqidagi chuqur izlanishlari filmning umrboqiyligini ta’minlagan. Filmda N. siymosi 3 aktyor tomonidan gavdalantirilgan. 1–3-qismlarda shoirning bolalik davri ko‘rsatilgan bo‘lib, Alisher rolini Doniyor Sodiqov o‘ynagan. 4–5-qismlarda N.ning musofirlikda kechgan davrlari aks etgan, N. roli F.Ahmedov tomonidan ijro etilgan. 6-qismdan boshlab N. obrazini Yoqub Ahmedov gavdalantirgan. Asarning har bir qismida N.ning shaxsiyatiga doir biror qirraga urg‘u berilgan. Uning mutafakkir shoir va siyosiy arbob bo‘lib yetishishidagi omillar ochib berishga harakat qilingan. Filmning dastlabki qismi G‘iyosiddin Kichkina uyidagi jahongir Temur shuhrati, temuriyzodalar, Mirzo Ulug‘bek haqidagi suhbat va Alisherning kirib kelishi b-n boshlanadi. Bola Alisher nafaqat turkiy, balki Qosim Anvorning forsiy baytini ham sharhlab o‘zining zakiyligini ko‘rsatadi. Xuddi shunday filmning har bir qismida Alisherning ijodga, she’riyatga muhabbati ko‘rsatib boriladi. 2-qismda bobosi nay yasab berar ekan, J.Rumiyning masnaviysidan olingan “Tingla, nay” deb boshlanuvchi baytini sharhlaydi. N. bolaligidan nohaqliklar, qurbonliklarning guvohi bo‘lib o‘sadi. Uning ijodiy kamolotida tog‘alarining hissasi katta bo‘lgan. Bu filmning 3-qismida ko‘rsatiladi. Alisher tog‘asi b-n suhbatida turkigo‘y shoirlar, turk tilining imkoniyatlaridan so‘z yuritadi. Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” asaridan ta’sirlanish voqeasi filmda nazardan chetda qolmagan. 4–5-qismlar N.ning Hirotdan surgun qilinishi va “g‘ariblik”da kechgan hayoti voqealariga bag‘ishlangan. Ta’kidlash joizki, videofilm Oybek asari asosida suratga olingan bo‘lsa-da, N.ga bag‘ishlab bir necha asarlar yaratgan M.Osim asarlarining ta’siri ham sezilarli bo‘lgan. Xususan, 5-qismida M.Osim asarlaridan ham foydalanishgan. 5-qismda N. Mashhaddan uyiga qaytadi. Ammo mol-mulki musodara qilingan. Xizmatkori otasidan qolgan omonatni beradi, lekin N. jo‘mardlik qilib, shu tillolar evaziga xizmatkorini bekdan ozod qiladi. N. qo‘zg‘olonchilarga qo‘shilgan tog‘asi Mirsaid u-n har doim nazoratda tutiladi. “Soda shayx” g‘azalini bahona qilib, Abusaid mirzo Samarqandga ketishiga farmon chiqaradi va 2 kundan keyin Ahmad Hojibek karvoni b-n Samarqandga ketishga majbur bo‘ladi. 6-qism N.ning Hirotga qaytishi b-n boshlanadi.

H.Boyqaro obrazini Z.Muhammadjonov ijro etgan. Keyingi qismlar ham N.ning ilm ahliga g‘amxo‘rligi, xalqparvarligi, she’riyat sultoni ekanini namoyon qiluvchi lavhalardan iborat. N.ning H.Boyqaroga sadoqati xalqqa bo‘lgan muhabbatida ko‘rinadi. Qo‘zg‘olonlarning bostirilishi, xalqning tinch va farovon yashashida N.ning xizmatlari beqiyosdir. Filmda N.ning shoirlik mahorati,

san'atkorligi va temuriylar saltanatidagi tutgan ahamiyati barobar yoritiladi. Ko'plab temuriyzodalarga ustozlik qiladi. Asarda Arslonqul va Dildor sevgisi, jasorati, ularning taqdirida N.ning roli ham urg'ulanadiki, bu ham shoirning adolat kurashchisi ekanini ko'rsatadi. N.ning sa'y-harakati b-n Dildor omon qoladi. Albatta, filmda hazil-mutoyibalar bor. 12-qismda Abdurahmon Jomiy hazratlariga N. taom berib yuboradi. Shunda Jomiy taom eltuvchining ovqatni xush ko'rishini, keltirgan taomini ko'proq o'zi tanovul qilganini aytib hajv she'r bitib beradi. Ustoziga e'timodi tufayli N. bu she'rni o'zida olib qoladi. Bunday o'rinlar filmning yanada jonli chiqishini ta'minlagan. So'nggi qismlarida ziddiyatlar kuchayadi. Xadicha begim H.Boyqaroning mastligidan foydalanib, Mo'min mirzoni qatl ettirish u-n farmonga imzo qo'ydirib oladi. Filmda N. shaxsiyatining buyukligi voqealar oxirida Majiddinning "Eng katta xatoyim Alisherga dushmanligim bo'ldi. U hamisha halol bo'lgan" iqrorida ko'rinadi. H.Boyqaroning N.ga ta'zimi b-n videofilm tugaydi.

Z.R.

NAVOIY VA MARKAZIY OSIYO XALQLARI ADABIYOTI – N. o'zidan keyingi nafaqat o'zbek yoki turkiy xalqlar adabiyoti, balki butun Sharq so'z san'atiga kuchli ta'sir o'tkazgan, badiiy tafakkur taraqqiyotida alohida davrni, yuksak bosqichni tashkil etadigan favqulodda iste'dod sohibidir. Sharq so'z san'ati o'zigacha erishgan barcha yutuqlarni o'zida mujassam etgan va uni yanada rivojlantirib, betakror badiiyat durdonalari b-n boyitgan mutafakkir shoir ijodi, xususan, turkiy adabiyot u-n etalon edi. Bu samarali ta'sirdan Markaziy Osiyo xalqlari adabiyoti ham xoli emas. Bu adabiyotlarda N.ni o'ziga ustoz deb bilmagan, unga ergashmagan, undan ta'sirlanmagan, mahorat sabog'ini olmagan qalam ahli yo'q, desak sira mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Qozoqlar ham, qirg'izlar ham, turkmanlar ham, hatto tojiklar ham N.ni o'z shoirlari deb biladilar va o'z mumtoz adabiyotlarining zabardast namoyandasi sifatida o'rganadilar. Turkman xalqi ham N.ni o'z shoiri sifatida ardoqlab keladi. Uning g'azallarini sevib kuylamagan turkman aytimchilarini topish qiyin. Mirali – Mir Alisher haqida ko'plab rivoyatlar yaratilganligining o'zi N.ning qardosh xalq orasida qanchalik mashhurligini ko'rsatadigan yorqin dalildir. Bu rivoyatlar N. tavalludining 500 yilligi munosabati b-n "Mirali va Sulton Suyun" (Husayn Boyqaro turkmanlar orasida shu nom b-n mashhur bo'lgan) nomi b-n alohida kitob holida ham nashr etilgan. Bayramxon, Ozodiy, Kamina, Durdi, Zunubiy, Ma'rufiy, Maxtumquli, Zaliliy, Saidiy, G'oyibiy, Tolibiy, Mullanafas, Shabanda, Miskin Qilich, Shaydoyi, Muhtojiy, Andalib kabi barcha turkman mumtoz shoirlari N.ni o'zlariga ustoz deb bilib, undan mahorat sabog'ini olganlar, badiiy barkamol asarlarini o'qib ilhomlanganlar va ta'sirlanganlar, unga naziralar va tatabbu'lar yozganlar, g'azallariga muxammaslar bog'laganlar. Ular orasida N.ga muhabbati va sadoqati cheksizligi jihatidan Maxtumquli alohida ajralib turadi. Qator she'rlarida buyuk salafini ixlos-u e'tiqod b-n tilga oladi. Maxtumquli o'zining buyuk salafi asarlaridagi ko'plab g'oya va qarashlarni she'rlarida rivojlantirgan va boyitgan: ularning yangidan yangi qirralarini ochgan, o'ziga xos yechimini bergan. Maxtumquli ijodida N.ga hamohanglikning turli ko'rinishlari mavjud. M-n, uning:

Qo'ldan kelgan yaxshi ishing bo'lmasa,
Ko'ngul ichra yaxshi niyat yaxshidir, –

misralari ustozining yaxshilik qilmagan kishi yomonlik ham qilmasa, shuning o'zi ham yaxshilik qilgancha bor, mazmunidagi quyidagi baytlariga hamohang jaranglaydi:

Yaxshilig' gar qilmasa, bori yomonlig'
qilmasa –
Kim, yomonlig' qilmasa, qilg'ancha
bordur yaxshilig'.

Bu hikmatlar bir mavzuda, bir yo'nalishda bo'lsa ham, bir-biridan o'zaro farq qiladi: N. bi-

rovga yomonlik qilmaslikning o‘zi yaxshilikdir desa, Maxtumquli yaxshilik qilolmaganga yaxshi niyat ham kifoyadir, deydi.

Yaxshidir dunyoda qolsa yaxshi ot,
Bu dunyoga kelgan bo‘lsang o‘tarsan, –

misralari esa N.ning mashhur:

Bu gulshan ichraki, yo‘qtur baqo guliga sabot,
Ajab saodat erur chiqsa yaxshiliq bila ot, –

nomli hikmatini yodga tushiradi. Chunki har ikkala hikmatda ham dunyoning foniyligi-yu yaxshi nomning boqiyligiga urg‘u berilgan. Bu fikrni har bir shoir o‘ziga xos yo‘sinda ifodalagan. Maxtumquli bu fikrni dunyo va inson munosabatiga bag‘ishlangan “Yetarsan” she’rida qistirib ketsa, N.ning mazkur teran ma’noli so‘zlari muammo janrida ifodalangan.

Azaldan qismat qilingan tug‘ma tabiatni o‘zgartirib bo‘lmaydi. Albatta, inson o‘z fe’lidagi, tabiatidagi bema’ni orzu-o‘ylari, yovuz intilishlari, nojo‘ya xatti-harakatlarini jilovlab, ayb-u qusurlarini hammadan yashirib yurishi mumkin, lekin bir kuni u o‘zining asl mohiyatini namoyon qiladi. Shundan kelib chiqib, N. o‘zining mashhur qit’asida zuvalasiga insoniylik urug‘i qo‘shib qorilmagan kimsalarni har qancha tarbiyat qilma, baribir odam bo‘lmaydi, degan fikrni bildirgan edi:

Nokas-u nojins avlodin kishi bo‘lsun debon
Chekma mehnatkim, latif o‘lmas kasofat olami –
Kim, kuchuk birla xo‘dukka necha qilsang
tarbiyat,
It bo‘lur, dog‘i eshak, bo‘lmaslar aslo odami.

Darhaqiqat, odam bolasi tarbiya tufayli ilm-u hunar egallashi, ba’zi yaxshi fazilatlarga ega bo‘lishi mumkin, lekin uning tabiatidagi yovuzlik, kin, hasad, baxillik, g‘arazgo‘ylik, tuhmatchilik, yolg‘onchilik kabi tug‘ma illatlarni dunyoning jami donishmandlari bir bo‘lib tarbiyalasalar ham yo‘qotolmaydilar.

N. o‘zining ko‘p yillik kuzatishlari va ular asosida tug‘ilgan mushohadalarini hayotiy misollar vositasida keng va batafsil tushuntirsa, “Zar bo‘lmas” she’rida Maxtumquli ayni fikrni xalq maqollari va obrazli iboralari orqali dalillaydi:

Tagi past g‘amini yeyish behuda,
Mis har qancha yaltirasa, zar bo‘lmas.
Har qancha ranj chekma, tortar asliga,
Har qarg‘a-quzg‘undan kabutar bo‘lmas.

Maxtumqulining quyidagi misralari esa buyuk salafi va o‘zining ushbu fikrlaridan kelib chiqqan xulosa yanglig‘ jaranglaydi:

Kimningki badbaxtlik tabiatida,
Butun olam ojiz tarbiyatida.

Ishq va muhabbat haqidagi otashin she’rlari b-n turkman ishqiy she’riyatini o‘zining yuksak cho‘qqisiga ko‘targani bois ishq mulkining shohi, deb ulug‘langan Mullanafas ham N.ning qudsiy nafasidan ilhomlangan shoirlar sirasiga kiradi. Uning o‘z zamonasining asosiy ilmlarini egallagan, hayotda ko‘p narsani ko‘rib, oq-u qorani tanigan donishmand inson bo‘lganligi pand-nasihat mavzuyidagi she’rlarida yorqin ko‘zga tashlanadi. Jumladan, “Ovozi kelsa” she’ridan olingan quyidagi satrlar azaliy va abadiy hayot haqiqatining sodda va tushunarli, oddiy va go‘zal chuqur va ta’sirchan shakldagi badiiy talqinidir:

Ohu bolasini parvarish etsang,
Suv o‘rniga shakar-sharbatlar tutsang,
Guldan yemish berib, oqibat kutsang,
Sendan yuz burar cho‘l ovozi kelsa.

Tug‘ilgan makon-muhiti, tabiiy hayot tarzi, ichki xohish-istak nafaqat inson, balki hayvonning ham tirikligi mohiyatini tashkil etadi. Ana shu buyuk haqiqatni shoir ohu obrazi orqali badiiy gavdalantirib beradi: ohu bolasini suv o‘rni-

ga shakar-sharbat, o‘t o‘rniga gul berib boqsang ham, baribir uning ko‘ngli o‘zi erkin unib-o‘sgan va yayrab kezgan bepoyon kengliklarda bo‘ladi! Bu satrlar N.ning mashhur ruboiysidagi quyidagi misralarni esga soladi:

Oltun qafas ichra gar qizil gul butsa,
Bulbulg‘a tikandek oshyon bo‘lmas emish.

“Alisher Navoiy ijodi XV asr va undan keyingi davr tojik shoirlarining ko‘pchiligi uchun ilhom manbayi, yuksak badiiy mahorat namunasi bo‘lib xizmat qildi”, – deb yozgan edi taniqli olim Ergashali Shodiyev. N.ning tojik adabiyotiga ta’siri Abdurahmon Jomiy, Kamoliddin Binoiy, Badriddin Hiloliy, Abdulla Hotifiy kabi o‘z davri shoirlariga ko‘rsatgan ta’siridan boshlanadi. Aytaylik, Jomiy va N. munosabatlari bir-biriga ustoz, biri-biriga shogird maqomida bo‘lgan, ya’ni ustoz sifatida faqat Jomiy o‘rgatib, shogird sifatida faqat N. o‘rganib qolmagan. Jomiy ko‘p asarlarini N.ning maslahati va iltimosi b-n yozganligi (u o‘zining 27 ta asarini N. iltimosi b-n yoki unga bag‘ishlab yozgan), qator asarlarini siyohi qurimay N. muhokamasiga topshirib, uning fikrini so‘raganligi ma’lum. Bu haqda N. “H.A.” dostoni muqaddimasida faxr-u iftixor b-n shunday yozadi:

Nomag‘akim, roqim etib xomasin,
Ko‘rmadi men ko‘rmayin el nomasin.

Maz.: Jomiy nimaiki yozmasin, mening nazarimdan o‘tkazmay turib, elga havola qilmas edi. Jomiy o‘zining she’riy merosini ham N. maslahati b-n uch devonga bo‘lgan.

N. fors-tojik tilida ijod qiluvchi ko‘plab shoirlarni ham qo‘llab-quvvatlagani, ularga homiylik qilgani, “M.N.” tazkirasida ularning ko‘piga o‘rin ajratgani ma’lum. Bu tazkiraning nafaqat o‘zbek, balki tojik adabiyoti tarixi u-n ham birlamchi manbalardan biri hisoblanishi bejiz emas.

Davlatshoh Samarqandiy, Kamoliddin Binoiy, Zayniddin Vosifiylar XV asrdayoq boshlab bergan N. asarlariga tatabbu’ yozish an’anasi tojik adabiyotidan keyingi asrlarda ham davom etdi. Bugina emas, Nozil Xo‘jandiy, Fano Istaravshaniy, Junaydullo Hoziq, Faxriy Rumoniy, Jazbiy, Pari, Muztar, Sodiq kabi qator shoirlar ham tojik, ham o‘zbek tilida ijod qilib, ikki tilda devonlar tuzganlar yoki devonlariga har ikki tildagi asarlarini kiritganlar. N.ning ko‘plab g‘azallariga tatabbu’ yozib, muxammaslar bog‘laganlar. Ular haqli ravishda har ikki xalq adabiyotining namoyandalari hisoblanadilar.

N.ning qozoq adabiyotiga ham ta’siri kuchli. “L.M.”, “F.Sh.”, “S.I.” dostonlari qozoq oqinlari tomonidan kuylanib, qozoq xalqi o‘rtasida keng yoyilgan va ularning ma’naviy mulkiga aylangan. Ular shoir asarlarini goh qisqartirib, goh o‘zgartirib, goh voqealarni qozoq zaminiga ko‘chirib, goh alohida bobini olib ijro etganlar. Mir Alisher Sultonshin degan podshoning vaziri sifatida tasvirlangan qator rivoyatlar yaratilgan. Shaodi Jongirov (1865–1933) N. ta’sirida “Hotamtoyning hikoyasi”, “Bahrom Go‘r”, “Iskandar Zulqarnayn” kabi asarlar yaratgan. Turmag‘ambet Iztileuov (1882–1939) “Iskandar”, “Doroynoma” asarlarini N.ga nazira tarzida yozadi. Maylixo‘ja Sultonxo‘ja o‘g‘li (1835–1898) shoirni ulug‘lab, jumladan, shunday deydi:

O‘zbekdan o‘tgan Navoiy,
Tilning gavhar guli edi.

Cho‘qon Valixonov, Sobit Muqonov, Muxtor Avezovlar ham N.ni ustoz deb bilgan va o‘z xalqiga tanishtirgan zotlardan hisoblanishadi. Qozoq shoirlari ichida N.dan eng ko‘p ta’sirlangan va uni o‘ziga ijod yo‘lida rahnamo deb bilgan Abaydir (1845–1904). U shoir asarlari b-n madrasada tanishgan va 14 yoshida yozgan she’ridayoq o‘z ustozlari qatorida ixlos va iftixor b-n tilga olgan edi:

Fuzuli, Shemsi, Seyxali, Navoiy, Sa’di, Firdousi,
Xoja Hafiz – bu hemmesi
Medet ber shag‘iri feriyad.

U “Iskandar” dostonini yaratishda boshqa Sharq shoirlari kabi N.ning “S.I.” dostonidan ham ta’sirlangani va ilhomlangani ma’lum. N. ayniqsa, XX asrda qozoq xalqi orasida mashhur bo‘ldi. Shoirning 500, 525, 550 yillik yubileylari Qozog‘istonda ham katta tantana qilinib, asarlari qozoq tilida nashr etildi. Hatto, Oybekning “Navoiy” romani, Uyg‘un va Izzat Sultonning “Alisher Navoiy” dramalari ham qozoqchaga o‘girildi va drama Qozoq davlat akademik teatrida sahnalashtirildi.

N.ning Abdulla Tojiboyev, Qalijon Bekxojin, Sag‘ing‘ali Seitov, Asqor To‘qmag‘ambetovlar tarjimasidagi “Tanlangan asarlar”i 1948-y.da Muxtor Avezov so‘zboshisi b-n nashr etilgan. A. Tojiboyev shoir haqida “O‘rtoq Navoiy” degan she’r ham yozgan. Esmagambet Ismailov, Is’hoq Duysenboyev, Rahmonqul Berdibayev, Qaldibek Seydanov kabi qozoq olimlari N. haqida, uning qozoq adabiyotiga ta’siri haqida qator tadqiqotlar olib borganlar. 1989-y. Nesibbek Ayitov “S.I.” dostonini “Iskandar qo‘rg‘oni” nomi b-n qozoq tiliga tarjima qildi.

Qirg‘iz adabiyotida ham N. an’analaridan bahramand bo‘lmagan shoirni topish qiyin. Qirg‘iz oqinlari N. she’rlari va dostonlarini kuylaganlar. To‘qtag‘ul, Ali To‘qumboyevlar ijodida buyuk o‘zbek shoiri ta’siri yorqin namoyon bo‘ladi. T.Sidiqbekov va Ch.Aytmatov kabi adiblar ham N. ijodidan bahramand bo‘lganlarini e’tirof etganlar. Ajiniyoz, Berdaq kabi ko‘plab qoraqalpoq shoirlari ham N.dan ilhomlanib, undan ta’sirlanib ijod qilganlar. Mushtarak mavzularda qalam tebratganlar, hamohang misralar bitganlar.

O‘tmishda N. asarlarini turkiy xalqlar asliyatda o‘qigan bo‘lsalar, o‘tgan asrdan boshlab ular qardosh tillarga ham tabdil va tarjima qilina boshladi. Bu tarjimalar esa ayni xalqlar adabiyotining navqiron avlodiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazib, ular u-n mahorat maktabi, badiiyat chashmasi bo‘lishi shubhasiz.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Қурамбоев К. Кўнгил бермиш сўзимга: Навоийга армуғон. – Т., 1992.*

E.O.

NAVOIY VA MUSIQA Qomusiy alloma N.ning musiqa ilmidan yaxshigina xabari bor edi. U 7-8 yoshlaridan musiqa b-n shug‘ullanib, ilk saboqni yaxshigina sozanda va shoir bo‘lgan tog‘asi Muhammad Ali G‘aribiydan olgan. Keyin taniqli mutasavvif shoir Ahmad Jomiyning avlodlaridan bo‘lgan, tasavvufda yuksak maqom sohibi bo‘lish b-n birga, she’r va musiqa ilmini ham yaxshi bilgan, o‘zi ham she’rlar yozib, musiqa bastalagan Xoja Yusuf Burhon qoshida musiqa ilmi nozikliklarini o‘rganadi. Shuning u-n ham “M.N.” tazkirasida Xoja Yusuf Burhon haqida ma’lumot berar ekan, “faqir musiqiy fanida aning shogirdimen” deb yozadi. Xondamirning “Xulosat ul-axbor”da yozishicha: “Oliyhazrat amir Alisher musiqa ilmida ham shu qadar mahorat hosil qilgan edilarki, agar muallimi soniy Abu Nasr Forobiy hayot bo‘lganlarida unga shogirdlik sirg‘asini qulog‘iga taqib olardi. Qonun-u udda zo‘r ta’lim olgan. Binobarin, sozanda ahlining ko‘pchiligi hamisha oliyhazratning mulozamatida bo‘ladilar”. “S.S.” dostonida uning o‘zi bu haqda shunday yozadi:

San’atim anda soz chalmoq ishi,
Bilmayin men kibi ishimni kishi.

Ilmi advor-u fanni musiqiy,
Mendin ul ilm ahli tahqiqi.

“M.Q.” asarida esa jamiyatdagi turli kasb-hunar egalariga ta’rif berar ekan, odamlarga shodlik bag‘ishlovchi sozandalar va ularning g‘amlarini oluvchi xonandalarga “dard-u hol ahli jon qilurlar fido” deb yozadi: “Ulki ko‘rguzgay muloyim tarona-yu nag‘am, agar eshitguvchining hayoti naqdi anga fido bo‘lsa ne g‘am. Ko‘ngul quvvati − xushnavozdin, ruh quti − xushovozdin. Xushxon mug‘anniydin dard ahlining o‘ti tezdur, agar malohati bo‘lsa, hol ahlig‘a rustoxezdur.

Har mug‘anniyki, dardmandonaroq nag‘ma chekar, aning nag‘masi zaxmliq yurakka korgarroq tegar. Otashin yuzluk mug‘anniyki, xulqidan muloyim surud chiqorg‘ay, hol ahlining kuygan bag‘ridin dud chiqorg‘ay. Muloyim mutribki, tab’ va fahm anga yor bo‘lg‘ay, xususanki, ham aytg‘ay va cholg‘ay, ko‘ngul mulkiga ne qo‘zg‘olonlarki solg‘ay”. Shu b-n birga, san’atni kosibchilikka, tirikchilik manbayiga aylantirib olgan, tamagirlikka mukkasidan ketgan, kimning puli va in’omi ko‘p, dasturxoni to‘kin bo‘lsa, o‘shaning yo‘rig‘iga yo‘rg‘alaydigan, hurmati va xizmat haqi ko‘ngildagiday bo‘lmasa, noz va bahona qiladigan tubantabiat va tilanchisifat mutrib-u mug‘anniylarni qattiq tanqid ostiga oladi.

O‘z davrining mashhur musiqashunoslaridan tahsil olib, bu ilmni chuqur o‘zlashtirgan shoirning o‘zi ham bir qator kuylar yaratgani haqida Bobur xabar beradi: “Yana musiqada yaxshi nimalar bog‘labtur. Yaxshi naqshlari va yaxshi peshravlari bordur”. O‘zi ham mohir sozanda va xushovoz xonanda bo‘lgan Mutribiy Samarqandiy Hindistondagi boburiy hukmdorlardan Jahongir huzuridagi bazmlardan birida shohning iltimosiga ko‘ra bir qator kuylarni chalib bergani haqida yozar ekan, N. yaratgan bir kuy haqida ham ma’lumot berib o‘tadi: “Shundan so‘ng “Segoh” ohangida, Amir Alisherning “Husayniy” ohangida “Turki zarb” usuli b-n Sulton Husayn Mirzoning “Noz-u niyoz” g‘azaliga bog‘lagan va mazkur ustod (Ali Noyi)da ham bor naqsh uslubidagi bir naqshni “Davri shohiy” usuli b-n ijro etdim”. Abdurauf Fitrat bir qator manbalardagi ma’lumotlar asosida “Qari navo” (Aslida “Qari Navoiy”) kuyi N.ga tegishli bo‘lsa kerak, degan taxminni ilgari suradi: “Buxoroning eski musiqiyshunoslari orasida bu kuyning N. asari bo‘lg‘ani so‘ylanadir”.

N. bastakor, xonanda va sozandalarni tarbiyalab yetishtirishda ham katta g‘amxo‘rlik qilgan. Ayniyning yozishicha, “yoshligida o‘zining musiqaga bo‘lgan qobiliyatini ko‘rsatgan ustod Qulmuhammadni avval N.ning o‘zi tarbiyalab, so‘ngra musiqa haqida “Asl ul-usul” degan asar yozgan Mavlono Alishohga shogird qilib berib, uni bu sohaning nazariyasi va amaliyotiga mutaxassis qilib chiqardi”. Xoja Abdullo Marvarid ham uning yordami va rahbarligida musiqadan yaxshi tahsil olib, mohir musiqashunos bo‘lib yetishadi va musiqa haqida maxsus kitob yozadi. U N.ning “Din ofati bir mug‘bachayi mohliqodur” deya boshlanadigan mashhur mustazodiga “Sarmast-u yaqom chok” nomi b-n kuy bastalaydi. Zayniddin Vosifiyning “Badoye ul-vaqoye’” asarida ma’lumot berishicha, “bu ashula o‘sha vaqtlarda Hirotda juda mashhur bo‘lgan va u kuylanmaydigan biror uy va bu ashulani eshitganda yoqasini chok qilmaydigan biror tinglovchi bo‘lmagan”. Shoir g‘azallariga Xoja Yusuf Burhon ham kuy bastalagan. Shayx Noyi va Husayn Udiylar ham N. tarbiyasi va homiyligida o‘z davrining mohir musiqachilari bo‘lib yetishganlar. N. da’vati b-n Abdurahmon Jomiy “Risolayi musiqiy”, Zaynulobidin Husayniy “Qonuni ilmi va amali musiqiy”, Kamoliddin Binoiy “Risola dar musiqiy”, Mahmudiy “Risola dar ilmi musiqiy” asarlarini yozganlar. Hatto N.ning o‘zi ham musiqaga oid risola yozgani naql qilinadi.

Oybekning yozishicha: “She’r ila musiqiyning ichki robitasini bilgan N. har shoirning musiqiydan xabardor bo‘lishini istagan. Musiqiydan xabarsiz shoirlarni u kamsitar ekan”. M-n, Binoiyga musiqani bilmasligini ta’na qilganida serqirra iste’dod sohibi bo‘lgan bu shoir qisqa muddatda musiqa ilmini o‘zlashtirib, hatto risola ham yozadi.

Ma’lumki, she’riyat o‘z jarangdorligi va ohangdorligi b-n musiqaga yaqin turadi. Chunki she’r tabiatiga ko‘ra qiroat b-n o‘qish, zamzama qilish va qo‘shiq qilib kuylash u-n yaratiladi. Aruz vaznida esa musiqiylik yanada kuchli. Aruz vazni − bu musiqiy ohanglar o‘lchovidir. So‘zni aruzga solish − uni muayyan kuyga moslash, musiqaga olish demak. Shuning u-n aruzda yaratilgan she’rlar o‘z-o‘zidan yo‘rg‘alab musiqaga tushib ketaveradi. Milliy qo‘shiqchiligimiz asosini aruzda bitilgan asarlar tashkil etishi bejiz

emas. N. she'rlari b-n aytiladigan 200 dan ziyod ashulalar milliy qo'shiqchiligimiz oltin fondining salmoqli qismini tashkil etadi. N.ning ko'plab hassos va jarangdor, ko'ngilga yaqin she'rlari asrlar davomida kuyga solinib, "xalq hofizlari va bastakorlari tomonidan Buxoro shashmaqomi, Xorazm va Farg'ona – Toshkent maqomlari, yalla, ashula va katta ashula janrlarida" sevib ijro etib kelingan. Muayyan qo'shiqlarning muqaddimasi – peshravida esa ruboiylari kuylangan. Ashulalardan to'plangan bayozlarning asosiy qismini N. she'rlari b-n aytiladigan qo'shiqlar tashkil etgan. O'zR FAShI qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan 43-raqamli bayoz buning yorqin bir namunasidir. Hoji Abdulaziz, Mulla To'ychi Hofiz, Yunus Rajabiy, To'xtasin Jalilov, Faxriddin Sodiqov, Komiljon Jabborov, Fattohxon Mamadaliyev, Orifxon Hotamov, Komiljon Otaniyozov, Abduhoshim Ismoilov, O'lmas Rasulov, Mahmudjon Tojiboyev va boshqa ko'plab yangi davr bastakorlari ham shoirning ko'plab g'azallariga kuy bastalaganlar. R.Abdullayevning yozishicha: "Alisher Navoiy she'rlari asosida bastakorlar tomonidan yaratilgan ashulalar va yallalarda o'zbek musiqasi merosining shakl xususiyatlari yanada kengayib, mukammallashib, yangidan yangi kuy va uslub unsurlari b-n boyib bormoqda".

N.ning "X.M.", "X.", "M.N.", "L.T.", "H.P.M.", "M.Q." kabi asarlarida yozilgan musiqaga oid asosiy ma'lumotlarni quyidagi yo'nalishlarga tasniflab o'rganish mumkin: 1) musiqiy shakllar va janrlar; 2) musiqiy cholg'ular; 3) bastakorlik ijodiyoti; 4) maqomlar.

1. N. musiqiy shakl va janrlar, o'sha davrlarda urf bo'lgan marosim va tantanalarda ijro etilgan qo'shiq, ashula yoxud o'zga musiqiy namunalar haqida ayrim ma'lumotlarni "X.M.", "M.A.", "H.P.M." kabi asarlarida bayon qilgan. Ya'ni, *nag'ma, naqsh, navo, tarona, surud, advor, qo'shuq, changu, chinga* (yor-yor), *doston, savt, chorzarb, yir* (jir) kabi janrlar; *lahn, tarannum, alhon* (ilhon), *tuyuq, amal, qavl, so'fiya* singari musiqiy shakllar; *budi-budoy, turkiy, tegdi* (egdi) *g'izol* kabi qo'shiq nomlarini keltirgan. Musiqa b-n bog'liq janr sifatida ifodalanayotgan, eng keng qo'llanilgan iboralardan biri – shoir taxallusi b-n bog'langan *navo* atamasidir.

Navoiy, bo'lmayin zor-u zaif o'lmas
***navo** topmoq,*
*Bu ermish piri **chang avtori**din dayr*
*ichra **talqinlar**.*

N. davrida mumtoz maqomlar b-n birga xalq kuy va ohanglari ham yashab kelgan. N. "M.A." risolasida salaflari merosida uchramagan xalq qo'shiqlariga mos keladigan vaznlarni ta'riflab, o'sha davr folklor ijodiyotiga oid qimmatli fikrlarni qoldirgan. Shoir keltirgan atamalarning ayrimlari shakl, mazmun, janr ichki qonuniyatlari, vazifalariga ko'ra o'zgarib bo'lsa-da, yetib kelgan. Bulardan *naqsh, tarona, chorzarb, savt, navo, qo'shiq* kabilar o'zbek musiqamizda; *lahn, amal, kor, so'fiya, qavl/qavalli, yir/jir* kabilar tojik, qozoq, qirg'iz, arab, hind, uyg'ur va boshqa Sharq xalqlari amaliyotida qo'llanilmoqda. Ba'zi atamalar esa ta'riflariga ko'ra, hozirda boshqa istilohlarga to'g'ri kelishi kuzatildi: nag'ma – musiqiy tovush; N.da musiqiy asar (ko'proq ashula yo'lidagi), hozirgi amaliyotda asl shakli qo'llanilmasa-da, *ton, lad, tovushqator* ma'nolariga to'g'ri keladi. Chinga – hozirda yor-yor. Ayrim janr va shakllar zamonaviy musiqashunoslikda, umuman, uchramaydi: *tuyuq, turkiy, aruzvoriy, arg'ushtak, budi-budoyi, muhabbatnoma* h.k.

2. N. asarlarida bir qator cholg'ular nomi ham berilgan. Ular orasida *nay, chang, g'ijjak, tanbur, ud, rubob, qo'buz, daf, arg'anun, chag'ona, rud, musiqor, ayolg'u, nog'ora* kabi cholg'u nomlarini uchratish mumkin. Ushbu cholg'ularning ayrimlari davr rivoji, yangi cholg'ularning zamonga mos holda takomillashishi zaminida o'zgarishlarga uchragan yoki iste'moldan chiqqan. Muhimi shundaki, N. o'z asarlarida musiqiy cholg'ularning shakl-u shamoyili, ko'rinishlaridan to ijro mezoni, ohang tarannumi xususiyati-

gacha shoirona falsafiy qarashlar b-n ta'riflagan, mukammal bayon qilib bergan. Cholg'ularga doir tasavvurimizni N. asarlariga ishlangan miniatyura san'ati orqali ham boyitishimiz mumkin. Jumladan, Kamoliddin Behzod tomonidan shoir asarlariga ishlangan ko'plab miniatyuralar tasvirlarida, asosan, *daf* (doyra), *nay, ud, dutor, g'ijjak, chang* cholg'ulari ifodalanganligi ma'lum bo'ladi. Miniatyuralar, avvalo, bizga cholg'ularning shakli xususida ma'lumot bersa, uning ijro mezonida muhit, ijrochilar va tinglovchilar xususida ham tasavvur beradi. N. davrida saroy musiqasida boshqa sozlarga nisbatan *chang, daf, nay, ud* kabi cholg'ulardan keng foydalanilgan. N. g'azaliyotida *ud, chang, tanbura, arg'anun, qonun, nay, g'ijjak, rubob, setor, sur, surnay, karnay* (karranoy), *naqqora* (nog'ora), *kovurgo* (katta nog'ora), *chag'ona* (safoil) kabi cholg'u asboblari goh bevosita mutribona-musiqiy manzaralar chizish u-n xizmat qilsa, gohida (aksariyat) bilvosita ulug' shoir va mutafakkirning falsafiy, ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy va ijodiy estetik qarashlarini ifodalaydi.

"M.Q." asaridagi "Mutrib va mug'anniylar zikrida" nomli faslida san'at ahliga berilgan tanqidiy bahoda esa N.ning estetik-badiiy qarashlari ifoda etilgan.

3. N. asarlarida bastakorlik hamda mutafakkir davrida ijod qilgan bastakorlar haqida muhim ma'lumotlar berilgan yoki ochiq talmeh san'ati yordamida qadimda mashhur bo'lgan Barbadga ishora qilgan o'rinlar bor. Hirot madaniy hayotida N. atrofida juda ko'plab mumtoz she'riyat b-n mashg'ul bo'lgan shoirlar to'plangan. Bu davrda, shuningdek, sozanda va xonandalar qatori ajoyib bastakorlar ham yetishib chiqqan. N. "bastakor", "bastalagan" kabi atamalar o'rniga "musannif", "mulahhin", "bog'labtur" kabi so'z, kalima, lafzni qo'llaydi. "Musannif" lafzi arabchada kitob tuzuvchi, tasniflovchi, muallif ma'nolarini bildirsa-da, shoir mazkur atamani musiqada *bastakor* ma'nosiga tenglashtirib ta'rif etgan holatlari mavjud: "...*mug'anniylar* ishtig'oli sanosi u-n *surud tuzmak* va *musannif*lar maqoli duosi ohangida *nag'ma ko'rguzmak*..." kabi. N. "M.N."da 459 nafar iste'dodli shoirlar haqida alohida fiqralar yozgan hamda ularning orasidan sozandalik, xonandalik, musiqa ilmi va nazariyasidan, ayniqsa, bastakorlikdan boxabar bo'lganlar bor. Ular orasidan esa 20 nafar ma'lum musiqiy bilimga ega, ayrimlari bastakorlik asarlari mavjudligi ta'kidlanadi. Bular: Mavlono Binoiy, Ustod Qulmuhammad, Xoja Kamoliddin Husayn, Xoja Abdulvafoyi Xorazmiy, Mavlono Qadimiy, Muhammad Jomiy, Muhammad Ali G'aribiy, Mavlono Shayxiy, Hofiz Sharbatiy, Xoja Kamoliddin Udiy, Ali Karmol, Hofiz Muhammad Sultonshoh, Xoja Abdulloh Sadr, Mir Habibulloh, Boysung'ur mirzo kabilar. Musiqiyda "tasniflari bor", "naqshlari bor", "amallari bor" degan ta'riflari orasidan "bog'labdur" istilohining 5 tasi bastakorlik ijodiyotida yuksak darajalarga qo'ygan, o'zining ijro uslubini talqin qila olgan Mavlono Sohib Balxiy, Mavlono Riyoziy, Mavlono Solimiy, Xoja Yusuf Burhon va Pahlavon Muhammad Kushtigirlargagina nisbatan qo'llanilgan.

N. yozadi: "*Mavlono Sohib Balxiy* – bovujudi she'r fanida mahoratlik kishi erdi, *advor* va *musiqiy* ilmida komil erdi. O'z g'azallarini o'z *amallariga bog'labdur*kim, aning fazoyilig'a dalolat qilg'ay. Ul jumladin, "*Chahorgoh*" *amalidir*kim, mashhurdur. Derlarkim, Jo'gi mirzo (to'liq ismi Muhammad Jo'gi mirzo, 1403–1445) majolisida ul *amal*din o'zga nima *aytturmas* ekandurki, bu g'azalga *bog'labdur:*

Ham chu subh az mehri ro'yat mezadam
damhoyi sard,
To rasam ro'ze ba ko'yat dil base shabgir kard.

O'z g'azallariga musiqiy asarlar bastalaganini "Chahorgoh" asari davrining mashhur ijodiy namunasi bo'lganidan ham bilish mumkin.

4. N. asarlarida Ushshoq, Navo, Rost, Husayniy, Hijoz, Iroq, Isfahon, Ajam kabi maqomlar; Nayrez, Bayot, Panjgoh, Bozgo'y, Savt singari sho'ba va shoxobchalar nomlari xususida ma'-

lumotlar bitilgan. Ulug‘ shoir ularni birlamchi va botiniy ma’nolar o‘rnida qo‘llaydi. Quyidagi diagrammada N.ning butun turkiy tildagi merosidan o‘rin olgan maqomlarning qo‘llanilishiga ko‘ra foizlari aks etgan. Diagrammaga Ushshoq maqomi kiritilmaganining boisi – u atigi birgina o‘rinda musiqadagi maqom ma’nosida ishlatilgan.

Navoiy merosida maqomlar va sho‘balarning ishlatilganligi ko‘rsatkichi



She’r o‘lchovlari ham maqom qismlarining xarakterini belgilab beruvchi omillardandir. Chunki olti maqomning bir xil nom b-n ataluvchi sho‘ba yoki qismlarida doira usuli va she’r o‘lchovlari o‘xshashdir. Chunonchi, shoir o‘zi yozgan g‘azal bahrining musiqiy ritmini ham yaxshi anglagan va o‘sha g‘azal qaysi doira usuliga mos tushishini oldindan bilgan. Shuning u-n ham o‘tmishda hofizlar *tan-tanan-tan* kabi o‘lchovlarni kuylab ko‘rib, tanlashgan.

Quyidagi jadvalda shoirning turkiy merosida uchragan musiqiy istilohlarning ko‘rsatkichi keltiriladi. Ya’ni N. asarlarida qo‘llanilgan ijrochilik, bastakorlik, cholg‘u atamalari soni:

1	**Ijrochilikka doir atamalar**	Mutrib / mutriba	51
		Mug‘anniy / mug‘anniya	96
		Hofiz	25
		Zuhra	32
		G‘ino ahli	6
		Go‘yanda	14
		Sozanda	16
		Xonanda	6
		Chol / cholmoq / cholqancha qil va h.k.	45
2	**Bastakorlikka doir atamalar**	Tuz / soz tuz / ohang tuz / nag‘ma tuz va h.k.	88
		Tasnif qilmoq	8
		Bog‘la / bog‘lamoq	15
3	**Cholg‘ular**	Arg‘anun	3
		Barbat	3
		Tanbur	4
		Ud	18
		Qo‘buz	4
		Chag‘ona	2
		Chang	76
		Nay	33
		Rud	23
		Daf	12
		Naqqora (nog‘ora)	2
		Nafir (karnay)	7
		Qonun	24
		Mezrob	18
		Zer/zir	14
		Bam	21

Alisher Navoiy asarlarida qo‘llanilgan maqomlar, musiqiy shakllar va janrlar soni

1	**Maqomlar**	Ajam	12
		Hijoz	21
2	**Musiqiy shakllar va janrlar**	Iroq	18
		Rost	8
		Nayrez / nerez	2
		Husayni	4
		Isfahon	3
		Segoh	2
		Chohargoh	2
		Ko‘k	17
		Ohang	98
		Navha	62
		Nag‘ma / nag‘omot / nag‘am	147
		Surud	97
		Naqsh	12

		Navo	105
		Lahn / alhor / ilhon	85
		Tarona	54
		Advor	19
		Savt	24
		Amal	22
		Sufiya	2
		Qavl / qavalli	4
		Chinga	5
		Musiqiy	26
		Chorzarb	1
		Yir / jir	2
		Qo‘shuq	1

N. va musiqa san’ati yo‘nalishi bo‘yicha S. Ayniy, A. Fitrat, Z. Karimova, T. G‘afurov, O. Ibrohimov, L. Jo‘rayeva kabi adib va olimlar tadqiqot olib borishgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. –ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ҳолоти Паҳлавон Муҳаммад. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Каримова З. Навои в музыке. – Т., 1988; Ғофурбеков Т. Сайланма. – Т., 2009; Ғофурбеков Т. Бастакорлик ижодиёти: тарихи, таҳлили, тақдири. – Т., 2019; Иброҳимов О. Ҳазрат Навоий ва мақом // Мусиқа ижодиёти масалалари. – Т., 2002; Иброҳимов О. “Сабъаи сайёр”нинг наво сирларига доир // Alisher Navoiy va XXI asr. Халқаро илмий-назарий анжуман материаллари тўплами. – Т., 2021; Жўраева Л. Алишер Навоий муғаннийномалари. – Т., 2011.*

E.O., B.R., L.J.

NAVOIY VA OZARBAYJON ADABIYOTI – Ozarbayjonda N. ijodining o‘rganilishi, umuman, n.shunoslik salmoqli tarixga ega. N.ga to‘ng‘ich xamsanavis Nizomiy Ganjaviy asarlarining davomchisi va turkiy tildagi adabiyotning daho namoyandasi o‘laroq qaraladi. N. asarlari Ozarbayjonda shoirning hayotlik yillaridayoq tarqalgan bo‘lib, kitobxonlarning diqqat-e’tiborini qozongan. N. “F.Sh.” dostoni xotimasida asarlari shuhrat tutgan kishvarlarni sanaganda, Tabrizni qalamga olarkan, Ozarbayjonning keng hududlarini ham ko‘zda tutadi. Prof. L.Qayumov yozishicha, N. buyuk ozar shoiri Nizomiyni o‘z ustozlari qatoriga qo‘yadi. Fuzuliy esa N.ga sodiq shogird singari muhabbat qo‘ygan. XX asr o‘zbek adabiyotining zabardast vakili G‘.G‘ulom bu holni o‘z she’rlarida tarannum etgan: “Biz bir-birimizning shogirdidirmiz, biz bir-birimizning muallimimiz”.

N. asarlari qo‘lyozmalarining ancha keng tarqalishi ham N.ga bo‘lgan katta e’tibordan darak beradi. Ozarbayjon FA Qo‘lyozmalar institutida N. asarlarining talaygina qo‘lyozmlari mavjud. Jumladan, Boku fondida 12 nusxa “B.B.”, 1 nusxa “N.N.”, 3 dastxat “G‘.S.”, 2 daftar “F.K.” devonlari saqlanadi. Ulardan hijriy 889-yil (m. 1484) jumod ul-avval oyining 15-sanasida ko‘chirilgani qayd qilingan №3010 inventar raqamli “B.B.” devoni qo‘lyozmasi eng nodir nusxadir. “B.B.”ning yana ikki nusxasi 1632, 1694-yy.ga oiddir. Fondda “N.N.”ning birgina to‘liq bo‘lmagan nusxasi ham saqlanadi. “G‘.S.”ning XVIII asrga oid bir nusxasiga (inv. № 20341) “B.B.”ga oid “Debocha” qo‘shib ko‘chirilgan va ular N. asarlari u-n tuzilgan “Abushqa” lug‘ati b-n birga muqovalangan. Shuningdek, fondda 19 ta “Chor devon” tipidagi N. lirikasidan saylanmalar ham o‘rin olgan. Ulardan biriga kotib tomonidan “Bu mening uchun eng aziz kitobdir” deb yozib qo‘yilgan. N. “X.”sining bir nusxasi, “H.A.”ning mukammal bo‘lmagan bir qo‘lyozmasi, “F.Sh.” dostonining XVIII asrga oid nusxasi mavjud. “L.M.” dostonining qo‘lyozmasi shoirning “S.I.” “L.T.” dostonlari b-n bir muqova ichiga olingan. Bundan tashqari, Qo‘lyozmalar instituti xazinasida “A.”, “N.J.”, “X.M.”, “M.N.”, “M.Q.”, “M.L.”, “M.”, “V.” kabi asarlarining ham dastxatlari mavjuddir.

XVI asr shoirlaridan Ahdiy Bag‘dodiy o‘zining “Gulshani shuaro” tazkirasida N. asarlari b-n Bag‘dodda yashab ijod etgan ozarbayjon sho-

irlari ham tanishligi, undan ta’sirlanish, ilhomlanish b-n faxrlanishlarini qayd etadi. Jumladan, Ibn Abdulloh degan shoirni “Navoiyni bilishda benazir edi”, – desa, Ahmad afandi ismli bir ijodkorni ham eslab: “Navoiy kutubi mutavodilina jiddu jahd etub, lazzatli tam’ ila mutalaziz o‘lub, mashhuri xos-u om o‘lmushdur”, – deb yozadi.

N.ning Ozarbayjon kitobxonlariga, Ozarbayjon qalam ahliga yaqinligini Latifiy o‘zining “Tazkirayi Latifiy” asarida ancha keng yoritib beradi. Unda N. va Ozarbayjon shoiri Fuzuliy munosabatlariga oid xarakterli misollar keltirilib, “Fuzuliy Alisher Navoiy uslubining muxlisi edi”, deb qayd etiladi. Darhaqiqat, Fuzuliy Sharq adabiyotida N. ijodiy an’analarining faol davomchisi sifatida tanildi. Bu hol dastlab Fuzuliyning lirik merosida, shuningdek, uning liro-epik asarlarida ham ko‘zga tashlanadi. Fuzuliy N.ning adabiyotshunoslikka oid asarlariga ham diqqat b-n qaradi. Jumladan, u N.ning muammo ilmiga bag‘ishlangan “R.M.” asari an’analari negizida kitob bitib, N. asaridagi muammo yechish qoidalarini uchtadan (a’moli tashili, a’moli tahsili, a’moli tahmili) to‘rttaga (a’moli tanzili) yetkazadi.

Ozarbayjon adabiyotining Kavsariy Ardabiliy, Kishvariy, G‘avsiy Tabriziy, Xayronxonim kabi namoyandalari ham N. asarlariga muxlislik ko‘zi b-n qaraganlari, shoir mahoratidan bahramand bo‘lganlari ma’lumdir.

XVI asrning II yarmida yashab ijod etgan taniqli ozarbayjon shoiri Haydar Tabriziyning asarlarida N. va Fuzuliy lirikasining aks-sadolari ravshan seziladi. N.ning Ozarbayjon FA Qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan D-344 va M-274 raqamli qo‘lyozmalarida Haydar Tabriziyning N. g‘azallariga bog‘lagan muxammaslari qo‘shib ko‘chirilgan. N.ning:

Sensiz, ey umr, soat manga bo‘lmasun, misrasi b-n boshlangan g‘azaliga Tabriziy bog‘lagan muxammasi matnshunoslik jihatidan juda muhim ahamiyatga ega. U N.ning shu g‘azali o‘rin olgan ko‘pgina qo‘lyozmalardagi ayrim noaniqliklarni tanqidiy ko‘zdan kechirishda nodir manbadir.

Omoniy (1536–1607) N. san’atkorlik maktabidan eng ko‘p o‘rgangan va undan ta’sirlangan ozarbayjon shoirlaridandir. Omoniy lirikasining bosh mavzusi inson, uning sof muhabbat tuyg‘usidir. Omoniyning N. “Lafz”, “Judo”, “Sanga”, “Manga”, ”Ko‘p”, “Tut”, “Bo‘lubdur”, “Netayin”, “Mani”, “Bu”, “Elindin” kabi radifli g‘azallariga yozgan naziralari mazmun va shakl jihatidan o‘zbek mutafakkir shoiri lirikasining hayotiy an’analariga hamohang. N.ning:

Hajrida ko‘nglumga bor ul la’li serob orzu,

misrasi b-n Omoniyning:

Ko‘nglum aylar vasli jonon orzu, –

kabi misralari muqoyasasida N. g‘azallarining ruhi va til xususiyatlarining ta’siri benihoyadir.

G‘avsiy Tabriziyning hayoti ko‘proq Tabrizda kechdi. U ma’lum bir muddat Isfahon, Hindistonda yashadi. Sanalgan mamlakatlarda N. asarlari keng tarqalib, sevib o‘qilardi. Adabiyot va ilm egalari N. asarlaridagi diniy-falsafiy, ijtimoiy-badiiy, didaktik-estetik qarashlarni qadrlar edilar. G‘avsiy Hoqoniy, Nasimiy, Soib, Fuzuliy meroslaridan bahramand bo‘lgani kabi N. asarlaridagi insonparvarlikni baland pardalarda kuylovchi g‘oya va obrazlardan qattiq ta’sirlandi. G‘avsiyning “Koshki”, “G‘araz”, “Ko‘z”, “So‘z”, “Bo‘lmas”, “Emish”, “Ko‘rgach” radifli g‘azallari N. she’riyatiga hamohang. U g‘azallaridan birida:

Bu hamon ra’no g‘azaldurki
Navoiy so‘ylamish, –

deya N.dan nechog‘lik bahramand bo‘lganini e’tirof etadi.

XIX asrda Ozarbayjonda maydonga kelgan “Devoni Hikmat”, “Guliston”, “Majmua ush-shuaro”, “Mavj ul-fusaho”, “Majma ush-shuaro”, “Bayt us-safo”, “Majlisi uns” kabi adabiy uyushmalarning dasturlarini Nizomiy, Hofiz, Jomiy va N. kabi mumtoz shoirlarning asarlarini o‘qish, ularga naziralar yozish, muxammaslar

bog‘lash tashkil etar edi. “Majlisi uns” va Shusha shahrida Mir Mahsun Navvabiyning tashabbusi b-n tuzilgan “Majlisi faromushon” yig‘inlarida esa suhbatlar she’r va musiqa ohanglari b-n kechgan. Bu majlislarda ko‘proq N. va Fuzuliy g‘azallarini o‘qish, ularga naziralar yozish iste’dodlarni sinash usuliga aylangan edi. Xon qizi laqabi b-n shuhrat topgan Xurshidbonu Notavon (1890–1897) shu adabiy muhit vakilidir. U tahsil yillaridan boshlab butun umri davomida N.ning lirik va epik asarlariga oshuftalikda ijod qildi. Uning “Sensiz”, “Ko‘nglum”, “Binafsha” radifli she’rlari mundarija jihatidan ham, shakl-xususiyatlari b-n ham N. g‘azallariga izdoshlik qiladi.

She’rlarini ozar, o‘zbek va fors tillarida yozgan Abdullabey Osiy (1839–1874) ravon tab’i va muloyim tabiati b-n qorabog‘lik olim va shoirlar o‘rtasida katta hurmat-e’tiborga sazovor bo‘lgan. Shoir o‘zbek tilidagi she’rlarini bevosita N. lirikasi ta’sirida yaratdi. Uning “Aro”, “Boisi”, “Ko‘ngul”, “Zulf”, “Qilg‘aymu” radifli g‘azallarida N. mahorat maktabining ijobiy ta’siri sezilib turadi. Osiy N. an’analarini davom ettirgan bir qator g‘azallarida unga hurmatan Navo taxallusini ham qo‘llagan. Uning “Qilg‘aymu” radifli g‘azalidagi quyidagi misralar bevosita N. nazmiga xos ohangni xotirlatadi:

Sabog‘a etsam ahvolimni sharhi imdod
qilg‘aymu?
Payomin keltirib bemora dilni shod qilg‘aymu?

Suporish aylasam shohimga vayron
mulki dil sharhin,
Sipohi dard-u g‘amni ko‘ndirib obod qilg‘aymu?

Abdullabey Osiyga zamondosh bo‘lib yashagan shoira Kamina Fotmaxonim ham N.ga izdoshlik b-n talay asarlar yaratgan. Shuningdek, XIX asrda Ozarbayjonda yashagan Said Azim Shirvoniy, Hasan Qora Hodiy, Mirza Jabroil Sipehriy kabilar ham N. ijodiga mayl ko‘rsatgan holda qalam tebratishgan.

Shoir Nokom (1889–1906) o‘z ijodining ilk bosqichlarida Foniy taxallusini ham qo‘llaganini ma’lum. U Ozarbayjonda N. merosining faol davomchilaridan biri sifatida tanilgan Nokomdan “Devoni badii”, “Holati parishon”, “Ganji adab” nomli 3 devon, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Latifanoma” kabi liro-epik asarlar yetib kelgan. Shoirning “L.T.”dagi “Shayx San’on”, “Mahmud va Ayoz” kabi hikoyalarning g‘oya va obrazlaridan istifoda etib yaratgan asari ham bor. Nokom merosining yuqoridagi ro‘yxati uning ko‘p jihatdan N.ni o‘ziga ustoz deb bilib, uning yo‘lidan borganini ko‘rsatadi. Devonlarning alohida-alohida nomlanishi, dostonining “Farhod va Shirin” deb atalishi, “L.T.” obrazlariga murojaat qilishi shundan dalolat beradi. U qator lirik asarlarida N. g‘azallarining mazmuni va qurilish yo‘llarini namuna qilib olib, o‘z g‘oyaviy niyatini go‘zal ifodalashga erishadi. “Bo‘ldi”, “Qildi”, “Ko‘rgach”, “So‘z”, “Qog‘oz” radiflari b-n yaratgan g‘azallari bunga misol bo‘la oladi. Nokomning matshnunoslikka doir mulohazalari, noqobil xattotlar haqidagi tanqidlari N. va Fuzuliy fikrlari b-n o‘xshash. Ozarbayjonlik Mirza Hasan (1824–1904)ning kutubxonasida N. asarlari, qo‘lyozmalari avaylab-asralgan. U yozgan bir g‘azalda N.ga behad hamohanglikni ko‘rish mumkin:

N.:

Zihi zuhuri jamoling quyosh kibi paydo,

Mirza Hasan:

Zihi zuhuri jamoling etar har kun ziyo paydo.

N. va Fuzuliy merosiga yoshlikdan qiziqqan Mirza Xalil (1877–1952) o‘zbek tilini ham mukammal bilar edi. Uning ko‘plab g‘azallari N. lirikasi ta’sirida yozilgan bo‘lib, ularda navoiyona ruhda hayotni qadrlash, insonni avaylash, insoniy fazilatlarni e’zozlash g‘oyasi rang-barang tasvirlar vositasida ko‘zga tashlanib turadi. Mirza Xalil N. asarlarini ilk marotaba ozarchaga o‘girgan, shoir g‘azallarining bir qo‘lyozmasini joriy alifboga ko‘chirgan edi. Uning N.ga e’tiqodan aytgan quyidagi bayti xarakterlidir:

Bir naxlim borimdir, so‘zumdir, samarim,
Tabdili Navoiytak vorimdur asarim.

Navbariy (1885–1967) N.ning juda ko‘p g‘azallariga taxmis bog‘lagan shoir sifatida tanilgan edi. Turkiy tillarni yaxshi bilgan shoir o‘zbek tilida ham she’rlar yozdi. Shoirning N.ning “Qoshi ila yuzini ko‘rgach munajjim beniqob”, “Chiqsa jonim ayb qilma, jismi bemorimga boq”, “Yo‘q ajab sarvi sihiga inmasa boshing sening” kabi misralar b-n boshlanuvchi g‘azallariga bog‘lagan taxmislari mukammalligi b-n diqqatni tortadi.

N. ijodiga bo‘lgan e’tibor yillar davomida kuchayib, N.ning lirik asarlaridan tarjimalar qilindi. N. asarlari Ozarbayjon adabiyotiga oid to‘plamlarga jalb etildi. Taniqli madaniyat arboblarining N. merosi va uning ahamiyati haqidagi maqolalari yuzaga keldi va turli nashrlar orqali o‘quvchilarga havola qilindi.

1902-y. Bog‘chasaroyda N.ning “M.L.” asari Ismoil Gaspiralining kirish maqolasi b-n ozar tilida kitob holida chop etilgan. “Tarojumi ahvoli (mashohir) Alisher Navoiy” nomli maqola “Dabiston” jurnalida, “Tarojumi ahvoli Alisher Navoiy” nomli yana bir maqola esa “Dirilik” (Tiriklik) jurnalida bosilgan. Mazmunan boy ilmiy va adabiy ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan, hajman ancha salmoqli ushbu maqolalar muallifi A.Hasanzoda edi.

Atoqli ozar adibi Mirza Fatali Oxundov o‘zining ijtimoiy-estetik qarashlari bayonida N. shaxsiyati, shoirning asarlariga murojaat etgani xarakterlidir. U o‘zining “Kamoluddavla maktublari” asarida N.ning ijtimoiy faoliyati va asarlarini yuqori darajada qadrlab so‘z yuritadi. U XIX asrda yashagan Eron shoiri Mirza Muhammadaliga qarata: “O‘zingga Alisher Navoiydek pir top” deb maslahat beradi. N. ijodiga bo‘lgan juda katta e’tiqod A.Bokixonovning “Gulistoni Eram” asarida ham o‘z ifodasini topgan.

Adabiyotshunos va pedagog Farhod Rahim o‘g‘li Og‘azoda (1880–1931) maktab va madrasalar, kechki kurslar va oilaviy mutolaalar u-n “Adabiyot majmuasi” nomi b-n kitob yaratgan, qiroat kitoblari tartib bergan adibdir. 1912-y. Farhod Og‘azodaning Bokuda nashr etilgan “Adabiyot majmuasi”da, “Dirilik” jurnali va boshqa matbuot nashrlarida N.ning hayoti va ijodi xususida keng qamrovli maqolalar chop etilgan. U, jumladan, o‘zi tuzgan “Adabiyot majmuasi” darsligining “Alisher Navoiy” bo‘limida shoirning hayot yo‘li, Husayn Boyqaro saroyidagi faoliyati, adabiy merosi haqidagi ma’lumotlar b-n bir qatorda uning she’rlaridan misollar keltiradi. N.ning Ozarbayjon maktab va madrasalari u-n yozilgan o‘quv qo‘llanmalariga kiritilishi uning boshqa turkiy xalqlar kabi ozarbayjonlar u-n ham g‘oyat yaqinligini, ulug‘ so‘z san’atkori sifatida qadrlanganini ko‘rsatadi.

Taniqli adabiyotshunos Salmon Mumtoz (1884–1941), 1926-y. 4-martida Bokudagi vaqtli matbuotda chop etgan “Navoiyning adabiyotimizga ta’siri” nomli qizg‘in munozaralarga sabab bo‘lgan maqolasida yozadi: “Turkiy xalqlar adabiyotida to‘rt buyuk siymo borki, ular haqida kichik-kichik maqolalar emas, katta-katta kitoblar yozish ham ozlik qiladi. Chunki ular bir mahallaning, bir shaharning yoki bir mamlakatning emas, balki butun Turk dunyosining faxr-u iftixoridirlar. Ularning biri, shak-shubhasiz, Mir Alisher Navoiydir”. S.Mumtoz N.ning ozarbayjon shoirlariga ta’siri masalasiga maxsus to‘xtaladi. Sodiqiy Sodiq, Noviriy, Mirzo Roziy, Zuloliy Shirvoniy, Abdullaboy Osiy, Mirza Hasan kabi shoirlarning N. she’riyatiga, san’atkorligiga munosabati xususida ham fikr yuritadi.

Zero, Faridunbey Ko‘charliga ko‘ra: “Alisher Navoiy XV asrning oxirlarida yetishib chiqqan chig‘atoy (o‘zbek) va ajam shuarosining eng mashhurlaridandir. Bu shoir asli chig‘atoy turklaridan bo‘lsa-da, Ozarbayjon shoirlari ichida katta hurmat va shuhrat qozongan. Darhaqiqat, adabiyotimizda N.ning ta’siri juda katta bo‘lgan. Bunga sabab uning tabi latifidan to‘ralgan ash’ori nafisa va ash’ori mamduxasi bo‘libdurki, chux shirin va totli til bila rishtaiy nazmga chekilmishdur”.

“Ozarbayjon adabiyoti jamiyati” nashriyoti 1926-y.da “Navoiy” nomli ilmiy tadqiqotni chop

etadi. Unda N. yashagan davri, hayoti va asarlari haqidagi ilmiy maqola va axborotlar o‘rin olgan edi. Kitobdagi ilk maqola Ismoil Hikmatga tegishli. 2-maqola Bakir Cho‘ponzodaning “Navoiy – tilshunos” nomli tadqiqotidir. Bunda N.ning tilshunoslik borasidagi faoliyati, ilmiy qarashlari bayon etilgan. Ushbu maqola gazetada ham (1926-y. 4-mart) bosilgan. 3-maqola fors adabiyotining N. ijodiga ta’siriga bag‘ishlangan bo‘lib, Mirzo Muhsin Ibrohimiy qalamiga mansub. Kitobning ilk sahifasida “Buyuk turk shoiri Navoiy” deb yozilgan bo‘lsa-da, bu to‘plamda ulug‘ mutafakkirning boshqa sohalardagi iste’dodi va salohiyati ham o‘z aksini topgan. “Yangi yo‘l” (1926-y. 4-mart) jurnalida chop etilgan “Amir Alisher Navoiy” maqolasi ham o‘quvchiga N. shaxsi, uning boy ma’naviy merosi haqida atroflicha tushuncha beradi. O‘sha yili shoirning “M.” va “V.” asarlari ilk marta ozarbayjon tilida nashrdan chiqqan. Aytish joizki, shu yilda Sulton Husayn Boyqaroning “Devon”i ham Bokuda nashr qilindi. Kitobda Ismoil Hikmat va Bakir Cho‘ponzodaning Husayn Boyqaro hayoti va ijodi haqidagi maqolalari joy olgan. “Революция и культура” jurnalida (1940-y., № 9) bu haqda mufassal xabar berilgan. Badiiy va ilmiy merosi b-n ozar adabiyoti va ilmining taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan Ali Nozimiy (1906–1941) ning 1926-y. Bokuda o‘tkazilgan N.ning hijriy-qamariy 500 yillik yubileyi arafasidagi faoliyati, ayniqsa, samarali bo‘lib, 1925-y. gazetada “Alisher Navoiy va biz” nomli maqola e’lon qilgan. Ali Nozimiyning N. shaxsiyati va ijodi haqidagi fikrlari uning merosi endigina o‘rganila boshlagan 20-y.y.da muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Uning quyidagi fikrlari diqqatga molikdir: “Turk adabiyotining ikki quyoshi bordirki, ulardan keyin ijodiyot maydoniga kelganlar o‘z shuhratlarining boshlanishini o‘shalardan olganlar. Bulardan biri butun turk-tatar tafakkur olami va badiiy zavqiga yillarcha, asrlarcha hokim bo‘lgan N., ikkinchisi esa butun shoirlarimizga zamon-zamon o‘rnak bo‘lib, bizga lirizmning eng go‘zal, nafis va yuksak namunalarini bergan Fuzuliy edi. Bularning har ikkisi shu qadar yuksakki, ba’zan ularning qaysi birlarining ustunliklarini tayin etish oldida aql shoshilib qoladi”.

Muboriz Alizoda Nizomiy ijodining tahliliga bag‘ishlangan ilmiy ishlarida Nizomiy “Xamsa”-si an’analarining davomchisi sifatida N. asarlariga ham murojaat qiladi. U “Nizomiy va davrimiz”, “Ozarbayjon adabiyoti tarixi”ning I jildidan o‘rin olgan “Nizomiy Ganjaviy” maqolasida N.ni “X.” an’analarining davomchisi sifatida qalamga oladi. Olimning “Nizomiy va Navoiy”, “O‘zbek adabiyotining buyuk namoyandasi” kabi maqolalarida N. merosining Ozarbayjonda o‘rganilishi masalasiga diqqat qiladi. Ikki qardosh xalqning ikki buyuk san’atkori ijodlari o‘rtasidagi munosabatlarni oydinlashtirish jarayonida o‘zbek-ozarbayjon aloqalari tarixining eng yorqin sahifalarini tadqiq etadi.

1940 – 1948-yy. oralig‘ida shoir tavalludining 500 yilligi munosabati b-n N. haqida ko‘plab yangi tadqiqotlar dunyoga keldi, maqolalar yozildi. Bu borada akad. Hamid Arasli amalga oshirgan beqiyos ishlarni esga olish lozim. Olimning “Nizomiy va Navoiy”, “Navoiy va Ozarbayjon adabiyoti”, “Alisher Navoiy”, “Alisher Navoiy va uning merosi”, “Navoiy va Fuzuliy”, “Buyuk shoir” va boshqa maqolalari N. merosini o‘rganishda qimmatli manba bo‘lib kelmoqda. (Q.: Arasli, Hamid). U “Navoiy va Fuzuliy” tadqiqotida bu ikki qudratli siymoning ijodini qiyosiy tadqiq etib, Fuzuliy merosiga N.ning, N. ijodiga Ozarbayjon klassiklarining ta’sirini sharhlab bergan. Olim N. ijodiga yuksak baho berar ekan, shunday yozadi: “Navoiy asarlari Ozarbayjonda XVI asrdan boshlab mehr va muhabbat bilan o‘qib kelinmoqda. Asrlar davomida xalqimiz Navoiyni o‘z shoirlari qatorida ko‘rib keladi. U bilan zamondosh Kishvariy, Xulqiy singari ozar shoirlari N.ning ta’siri ostida kamol topganlar. Buyuk Fuzuliy ham “Layli va Majnun” asarining muqaddimasida uning nomini Nizomiy va Abu Nuvos singari Sharqning buyuk shoirlari qatorida zikr etadi. Mirzo Fatali Oxundov o‘z maqolalarida Navoiyni oqil va dono davlat arbobi

sifatida qalamga oladi". 1947-y. N.ning "S.S." dostonidagi ikki hikoya, 1948-y.da esa "F.Sh." dostonining M.Rahim, M.Dilboziy, N.Rafibeyli, A.Ziyotoy va A.Vohidlar tomonidan qilingan ozarbayjoncha tarjimasi chop etildi. Nashrga Hamid Arasli tomonidan yozilgan so'zboshida asar mavzusi, uning falsafiy va badiiy ahamiyati xususida batafsil fikr yuritilgan. Mazkur tarjima 1968-y.da qayta nashr etildi. Bu kitobga ham Hamid Arasli so'zboshi yozgan. Sharhlar va tahrir ham ushbu olimga tegishlidir.

1979-y. Alikbar Ziyotoy mazkur asarni asliyatdan tarjima qiladi. 2004-y.da N.ning "Tanlangan asarlar"i 1968 va 1979-y.dagi nashrlar asosida takroran 25 ming nusxada chop etildi.

Muhammad Orifning "Alisher Navoiy – buyuk o'zbek shoiri", ozarbayjon-o'zbek adabiy aloqalari borasida dissertatsiya yoqlagan G'ulomhusayn Aliyevning "Ozarbayjon-o'zbek adabiy aloqalaridan", "Ozarbayjon-o'zbek adabiy aloqalariga doir" (1964) maqolalari ham yirik tadqiqotlar sirasiga kiradi.

1975-y.da N.ning "She'rlar" kitobi Bokuda "Ilm" nashriyotida chop etilgan. Bezakli muqovada 96 sahifa qilib chiqarilgan bu kitobga shoirning g'azallari, muxammas va ruboiylari, dubaytiy va boshqa janrdagi asarlari kiritilgan. Bu she'rlarni xalq shoiri Sulaymon Rustam ozar tiliga o'girgan va kitobga muqaddima ham yozgan. 1980-y.da O'zbekistonda Ozarbayjon adabiyoti va san'ati kunlari arafasida Bokuda o't-kazilgan "Navoiy va Fuzuliy" she'riyat kechasi adabiyot ixlosmandlari u-n katta bayramga aylanib ketgan edi.

Shu ma'noda aytish mumkinki, ozar xalqining N.ga nisbatan muhabbati, ehtirom va e'zoziga sabab faqatgina til yaqinligida emas, uning asarlarida ilgari surilgan insonparvarlik, bag'rikenglik, mehr-oqibat, sevgi va sadoqat singari umuminsoniy g'oyalar hamdir. Prof. Panoh Xalilovning 1977-y. nashr qilgan kitobida N. haqida batafsil ma'lumot berilgan bo'lib, muallif shoirning hayoti va ijodi, asarlari, ijodiy falsafasi haqida o'z qarashlarini bayon etgan.

N. tavalludining 525 va 550 yilligi yubileylari munosabati b-n O'zbekistonda o'tkazilgan tadbirlarda ham Ozarbayjondagi ijodiy va ilmiy tashkilotlar munosib ishtirok etishgan. "F.Sh." dostoni va N. lirikasidan namunalar Ozarbayjonda bosildi. H.Arasli, J.Nag'iyevalarning Boku va Toshkentda vaqtli matbuot va ilmiy jurnallarda N.ga bag'ishlangan bir qator maqolalari chop etildi. Darhaqiqat, ozarbayjonlik n.shunoslar orasida J.Nag'iyeva alohida o'rin tutadi. Uning rus tilida "Ilm" nashriyotida chop etilgan "Alisher Navoiyning Boku qo'lyozmalari" (1986) monografiyasi ham ilmiy, ham adabiy aloqalar nuqtayi nazaridan alohida ahamiyatga ega. Tadqiqotchi Abulfaz Rahimov mazkur kitob haqida shunday yozadi: J.Nag'iyeva N. devonining qo'lyozma nusxalarini o'rganish tarixi haqida so'z yuritarkan, ko'pgina G'arb va Sharq mualliflarining nomini tilga oladi. Taniqli o'zbek olimlari P.Shamsiyev, H.Sulaymonovning tadqiqotlariga yuksak baho beradi. Ma'lumotlarga ko'ra, Qo'lyozmalar institutida shoir devonlarining 17 nusxasi saqlanar ekan. Ularning ko'pi bir necha asrlar avval mohir xattotlar tarafidan ko'chirilgan. Shu bois N.ning Toshkentda "Mukammal asarlar to'plami" chop etilayotganda ushbu qo'lyozmalardan ham unumli foydalanilgan. Mumtoz meros tadqiqi sohasida katta tajriba to'plagan J. Nag'iyevaning "Navoiy va Ozarbayjon adabiyoti. XVI– XIX asrlar" nomli doktorlik ishi 1990-y. da Toshkentda kitob holida bosmadan chiqqan. U hozirga qadar "Navoiy qomusi lug'ati" (mualliflardan biri, 1989), "Ozarbayjonda Navoiy", "Навои и азербайджанская литература. XVI–XIX века" (1990) asarlari, ozar, o'zbek, rus tillaridagi oltmishdan ortiq ilmiy maqolalari dunyo yuzini ko'rgan. 2006-y. f.f.d-ri Tarlon Quliyev N.ning mashhur "M.A." asarini Ozarbayjon tilida chop ettirdi. U bu asarni o'zbek tilidan tarjima qilib, matnga oid o'z izohlarini va sharhlarini ham kiritgan. Alisher Navoiy va uning "M.A." so'zboshisi o'quvchilar u-n asarni o'qish va o'rganishda muhim manba vazifasini o'taydi.

Ozarbayjon adabiyotshunosligida N. hayoti va ijodi hali yana o‘nlab, yuzlab ilmiy ishlar u-n mavzu bo‘lib xizmat qilishiga shubha yo‘q. Prof. Almaz Ulvining turli yillarda “Navoiy va Ozarbayjon adabiyotshunosligi”, “Navoiy asarlari Ozarbayjon tilida”, “O‘zbekistonda Nizomiy, Nasimiy va Fuzuliy merosining o‘rganilishi”, “Navoiyning adabiy siymosi”, “Chig‘atoy adabiyoti. Navoiy dahosi”, “Navoiyshunos olima Jannat Nag‘iyeva” va boshqa maqolalari turli gazeta, almanax va jurnallarda chop etilgan. Ozarbayjon-o‘zbek adabiy aloqalari ibtidosidan to hozirga qadar bo‘lgan 600 yillik davr uning “Ozarbayjon-o‘zbek (chig‘atoy) adabiy aloqalari (davrlar, siymolar, janrlar, tamoyillar)” nomli (Boku, 2008.) monografiyasida muxtasar shaklda o‘z ifodasini topgan. “Navoiy asri va nasri” nomli yirik monografiyasida ozar va o‘zbek n.shunosligining dolzarb muammolari, adabiy aloqalar to‘g‘risida salmoqli mulohazalar yuritilgan.

Ozar shoiri Samad Vurg‘un 1940-y.da ikki ulug‘ mutafakkir – Nizomiy va N. yubileylari qo‘mitasi yig‘ilishida har ikki allomaning dunyo madaniyatiga qo‘shgan beqiyos hissasi haqida so‘z yuritarkan, jumladan, shunday degandi: “Men va mening yaqinlarim ancha paytgacha N.ning o‘zbek shoiri ekanligini bilmasdik. Chunki she’riyat majlislarida uning she’rlarini, g‘azallarini ozariy lahjada eshitib, o‘qib kelganimiz bois uni Ozarbayjon shoiri deb bilganmiz”. Boku shahrining Narimonov tumanidagi bir ko‘cha, Gazax tumanidagi bir qishloq N. nomi b-n ataladi.

Ad.: *Ўзбек адабиёти тарихи. 5 жилдлик. I ва V жилдлар. – Т., 1978-80.; Арасли Ҳ. Низомий ва Навоий // “Гулистон”, 1940, №4.; Арасли Ҳ. Навоий ва озарбайжон адабиёти // “Ўзбек тили ва адабиёти”, 1962-йил №3.; Султонов М. Фузулий ва Алишер Навоийларнинг қўш девони қўлёзмаси // Муҳаммад Фузулий. Илмий-тадқиқот мақолалар // Боку, 1958; Нагиева Ж. Бакинские рукописи Алишера Навои. – Баку, 1986; Раҳимов А. Алишер Навоийнинг Боку қўлёзмалари. – Боку, 1987. Нагиева Ж. Навои и Азербайджанская литература. – Т., 1990; Арасли Ҳ. Озарбайжон адабиёти: тарихи ва муаммолари. // Боку: Ёшлик, 1998; Анор. 1500 йилнинг Ўғуз шоирлари. Антология. 2 китоб. // Боку, 1999; Улви Олмос (Биннетова). Озарбайжон-ўзбек (чиғатой) адабий алоқалари (даврлар, сиймолар, жанрлар, тамойиллар). – Боку, 2008; Алишер Навоий Озарбайжон адабиётшунослигида (мақолалар, сўзбоши Олмос Улвий) // Боку, 2009; Рамиз Асқар. Турк халқлари адабиётидан очерклар – 1. – Боку, 2011; Almaz Ülvi. “Əlişir Nəvainin əsri və nəsri(elmi-filoloji və dini-təsəvvüfi əsərləri)”. Monoqrafiya. – Bakı, 2022.*

O.U., S.O‘.

NAVOIY VA TEATR XX asrda Uyg‘un va Izzat Sultonning “Alisher Navoiy” dramasi asosida sahnada ulug‘ shoirning jonli qiyofasi yaratildi. Hazrat N. siymosini sahnada Olim Xo‘jayev, Razzoq Hamroyev, Abror Hidoyatov, Zikir Muhammadjonov, Yoqub Ahmedov kabi zabardast aktyorlar ijro etishdi. Va nafaqat mutafakkir shoirning, balki xalq nazarida aktyorlar ijodlarining ham yangi qirrasi kashf etildi. Bu asarlar o‘zbek teatri tarixidan munosib o‘rin egalladi. Istiqloldan so‘ng N. ijodi va shaxsiyatiga yangi yondashuvlar boshlandi. Jumladan, teatr sohasida ham yangi izlanishlar olib borildi. Natijada, Behzod Muhammadkarimov ijrosida N. obrazi yangidan yaratildi.

I. “Alisher Navoiy” spektakli. Izzat Sulton va Uyg‘un hamkorligining oliy cho‘qqisi, shubhasiz, “Alisher Navoiy” tarixiy dramasidir. Albatta, asar mafkuraviy ta’sir ostida yozilgan bo‘lsa-da, uning atoqli rejissyorlar, iste’dodli aktyorlar tomonidan sahnalashtirilishi bu asarga go‘yo yana bir jon baxsh etdi. Uyg‘un va Izzat Sultonning 1942-y.da yozilgan bu pyesasi teatr ishga tushgan sanadan boshlab, 1945-y.gi birinchi premyerasigacha turli taftish, tekshiruvlardan o‘tkazilib, ilk bor tomoshabinga ko‘rsatilgan. Avvaliga spektakl “o‘tmishni ideallashtirish” aybi b-n to‘xtatilib qo‘yilgan. Nihoyat, N.ning 500 yillik yubileyi

munosabati b-n, ayrim zo‘raki tahrirlardan keyin 1948-y. muntazam ijro etish u-n teatr repertuariga kiritildi. Spektaklda N. rolini avval Abror Hidoyatov, ketma-ket O.Xo‘jayev, Guli rolini S.Eshonto‘rayeva, Husayn Boyqaro rolini L.Nazrullayev, bosh vazir Majiddin rolini O.Jalilov, Mansur rolini S.Tabibullayev ijro etishdi.

“Alisher Navoiy” spektakli Mannon Uyg‘urni umri davomida tinimsiz olib borgan izlanishlarining davomi, ma’lum darajada yakuni ham bo‘ldi. Bu izlanishlar ungagina xos rejissura madaniyati, timsollar talqinida milliylik, til, nutq san’atining sof, ravon, ta’sirchan qudratini to‘liq namoyon bo‘lishi singari amallarda o‘z ifodasini topdi. Teatrshunoslar, “Alisher Navoiy” ikki hamkor muallifninggina emas, akademik teatr, qolaversa, umumo‘zbek sahna san’ati, uning muxlislari baxti va quvonchi, umri boqiy mumtoz tomoshasi bo‘lib qoldi” deyishadi. Darhaqiqat, dramadagi N. va Guli o‘rtasidagi dialog va monologlar sanoqsiz muxlislar qalbidan o‘rin oldi. Tildan tilga ko‘chib, yod bo‘lib ketdi.

Spektakl N. va Gulining uchrashuvi b-n boshlanadi. N. *“E, nasimi subh, ahvolim diloromimga ayt! Zulfi sunbul, yuzi gul, sarvi gulandomimga ayt!”* matla’li g‘azalini o‘qiydi. Va sahnada Guli paydo bo‘ladi. Ayniqsa, Astrobod sahnasida qo‘shni bog‘dan, tunda bir qizning N.ning “O‘n sakkiz ming olam oshubi agar boshindadur, ne ajab chun sarv nozim o‘n sakiz yoshindadur” qo‘shig‘iga javoban pyesada N.ning mashhur monologi yangraydi:

Kuy! G‘azal!.. Oh!.. Qaytadan tirnar yaramni,
Tag‘in eslatdi u mash’um haramni…

“Faqat bir iltimos: ko‘rkam chamanda,
Ochib gul-g‘unchalar etganda xanda.

Juvonmarg g‘unchani ham esla, yod et!
Unutma, doimo ruhimni shod et!”

Unutmayman seni tokim tirikman,
Seni jon o‘rnida saqlar tirik tan.

Hamon qalbimga sen ilhom solursen,
Mening she’rim bilan mangu qolursen.

Senga besh bebaho haykal qururmen,
Gahi Shirin, gahi Layli bo‘lib sen.

Yasharsen doimo dostonlarimda…
Xazonsiz gul bo‘lib bo‘stonlarimda…

Men ersam, g‘am bilan yig‘lab ketarmen,
Sening ishqing bilan tanho o‘tarmen…

Mazkur monolog va dialoglarning yuraklarda jo bo‘lishi mualliflarning N. ijodiyotini chuqur anglagani b-n birga O.Xo‘jayevning o‘tkir nafasi, sehrli ovozi, shoir holi va ifodani uyg‘unlashtira olganligidandir. O‘zbek Davlat akademik (hozirgi Milliy akademik teatr) drama teatrida “Alisher Navoiy” spektakli 700 martadan ortiq namoyish etilgan.

II. “Alisher Navoiy” spektakli. Istiqloldan so‘ng shoirning sahnadagi qiyofasini yaratishga alohida e’tibor qaratildi. Taniqli aktyor va rejissyor Turg‘un Azizov tomonidan sahnalashtirilgan “Alisher Navoiy” dramasi 1991-y. 4-mart kuni tomoshabinlar ko‘rigidan o‘tdi. Mazkur sahna asari O‘zbekistonning boshqa teatrlarida ham qo‘yildi. Xususan, mazkur drama ko‘p yillar Buxoro teatr repertuarida turdi. Teatr aktyori Aliqul To‘liyev N. siymosini ancha ishonarli gavdalantirishga muvaffaq bo‘ldi.

III. “Alisher Navoiy” spektakli. 2016-y. N. tavalludining 575 yilligi nishonlanadi. Ushbu munosabat b-n ko‘pgina tadbirlar tashkillashtirilgan. O‘zbek Milliy drama teatri jamoasi Uyg‘un va Izzat Sultonning “Alisher Navoiy” daramasi asosida yaratilgan “Alisher Navoiy” spektaklini qayta sahnalashtirdi. Rejissyor Rustam Hamidov sahnalashtirgan ushbu spektaklda N. obrazini aktyor Behzod Muhammadkarimov, Guli obrazini aktrisa Dilnoza Kubayeva, Husayn Boyqaro rolini – O‘zbekiston xalq artisti Erkin Komilov, Majdiddin rolini O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Mahmud Ismoilov, Munajjim

obrazini – O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Tohir Saidov, Mansur obrazini – aktyor Rixsitilla Abdullayev gavdalantirdi. Tomoshabinga spektaklda, saltanat atrofidagi mojarolar, ezgulik va tubanlik, adolat va yovuzlik o‘rtasidagi talotumlar asnosida ijodkorning qismati ochib berildi. Buyuk shaxs, davlat arbobi, madaniyat va san’at homiysi N. obrazi keskin to‘qnashuvlarda ko‘rsatilgan bo‘lib, rejissyor tarixiy voqealar manzaralarida hozirgi zamon b-n hamohanglikni, moziyda kechgan voqealar bugungi dunyoda ham takrorlanayotganini ta’kidlashga harakat qilgan va ko‘rsata olgan.

Ijodkor taqdiri xalq taqdiri b-n chambarchas bog‘liq ekanligi ta’kidlanadi spektaklda. N. iste’dod – ezgulik yo‘lidan borishga mahkumligi – bu uning ilohiy vazifasi ekanligi tomoshada yaqqol aytilgan va ko‘rsatilgan.

IV. “Navoiy va Boyqaro” spektakli. Atoqli adib Muhammad Alining “Navoiy va Boyqaro” asari, shu muallifning ssenariysi asosida Farg‘ona viloyati musiqali drama teatrida “Navoiy va Boyqaro” spektakli yaratilgan. Albatta, respublikaning turli viloyat teatrlarida ham N. hayoti va ijodini yorituvchi sahna asarlari ko‘plab yaratilgan. Va aytish mumkinki, ularning har birida rejissyor va aktyorning mahorati b-n N. xalqqa yaqinlashtirishga urinilgan.

Ad.: *Tursunov T. O‘zbek teatri tarixi. (Darslik-monografiya). – T., 2010.*

Z.R.

NAVOIY VA TURKMAN ADABIYOTI – N. turkman xalqi, turkman adabiyotida alohida mavqega ega yirik adabiy shaxsiyatdir. O‘zbek va turkman xalqining o‘zaro aloqalari uzoq tarixga, an’anaga ega bo‘lib, adabiy ta’sir, tajriba almashuvlar, qanday ijtimoiy-tarixiy sharoit bo‘lmasin, ikki adabiyot taraqqiyotiga xizmat qilgan. Turkman olimi B.Sariyevning e’tiroflari diqqatga sazovor: “Alisher Navoiy Markaziy Osiyoning eng buyuk adabiyot maktablaridan biridir. Ayni vaqtda u Alisher Navoiy bir til ustozidir. U yashagan davr tiliga hozirda “Alisher Navoiy tili” deb ataladi. Bu tilning boyliklaridan yaxshi foydalanganlardan biri turkman tilidir. Bu mavzu kelgusida chuqur tadqiq qilinishi lozim bo‘lgan mavzulardan biridir”. Zotan, N. hayotligidayoq bu o‘lka b-n tanishgani, shoirlari b-n ijodiy hamkorlik qilganini manbalar tasdiqlaydi. N.ning Marvda bo‘lganligi, u yerdagi “Xusraviya” madrasasi bevosita shoir tashabbusi b-n qurilgani borasida Xondamir “Makorim ul-axloq” kitobida ma’lumot beradi. Shoirning “X.M.” devoni va “M.N. ” tazkirasida Marv, turkman shoirlari to‘g‘risida ba’zi ma’lumotlar uchraydi. Shoirning turkman qizlarini vasf etib, g‘azal bitgani ham ilmda isbotlangan. N.ning Iroq sultoni va shoir, turkman Yoqubbek b-n do‘stona munosabatlarini dalillaydigan ilmiy manbalarga ham egamiz. Jumladan, “M.N.”ning yettinchi majlisida Sulton Yoqubbek haqida shunday deyilgan: “Ya’qub Mirzo – Turkman salotinida aningdek pisandida zotlig‘ va hamida sifotlig‘ yigit oz bo‘lgay”. Adib Oybek “Navoiy” romanida bu tarixiy ma’lumotga murojaat etib, N. va Yoqubbek munosabatlari tasviriga maxsus sahifalar ajratgan.

Zero, N. merosi turkman shoirlari u-n o‘qish, o‘rganish, tajriba orttirib, mahoratini chiniqtirish maktabi vazifasini o‘tadi. XVI–XVII asrlardan boshlab shoir an’analariga ergashuvchilar, navoiyona uslubda ijod qilishga intiluvchilar adabiyot maydoniga kirib keldi. M-n, XVI asr o‘rtalari XVII asr boshlarida yashab, ijod etgan turkman olimi, shoir va rassom Avshar Sodiqiy “M.N.” tazkirasi ta’sirida “Majme ul-havas” tazkirasini yaratgan. Mazkur asarda fors, arab va turkiy tilda ijod qilgan 332 shoir haqida ma’lumot keltiradi. Tazkira muqaddima, sakkiz bo‘lim va xotimadan iborat. U barcha xususiyatlari b-n “M.N.”-ni eslatadi. Sodiqiy tazkiraning muqaddimasida o‘zigacha tazkira yozgan ijodkorlarni tilga oladi. N.ga 3 baytli g‘azal bag‘ishlab, ulug‘ shoirga ehtiromini bildiradi. “Majme ul-havas”ni bevosita “M.N.” ta’sirida yozganini ham qayd etadi.

XVIII–XIX asrlar turkman adabiyotida N. merosiga qiziqish, ijodining yetakchi g‘oyalarini yangi tarixiy sharoitga moslashtirib rivojlan-

tirishga moyillik har qachongidan kuchayadi. Ozodiy va Andalib, Maxtumquli va Kamina, Mullanafas va Zeliliy, Shohbandi va Seyidiy, Zinhoriy va G‘oyibiy, yana o‘nlab turkman shoirlari Sharq adabiyotining buyuk mutafakkirlari qatorida N.ni ham o‘zlariga ustoz sanagan. Ular shoir merosiga ijodiy yondashib, individual uslubda qalam tebratishgan. Maxtumqulining iste’dodli shoir bo‘lib yetishishida alohida rol o‘ynagan Davlatmamad Ozodiy shunday iste’dod sohiblaridan biri bo‘lgan. U XVIII asr turkman adabiyotida bir necha dostonlari, g‘azallari b-n tanildi. Ayniqsa, olti ming misradan iborat “Va’zi Ozodiy” dostoni shoirga shuhrat keltirdi. U janri bo‘yicha falsafiy-didaktik doston. Asar Sharq mumtoz adabiyoti, xususan, Firdavsiy, Nizomiy, Sa’diy, Jomiy, N. an’analari ruhida yozilgan. Asarda N.ning dostonchilikdagi tajribasi, xususan, “H.A.”ning ta’siri seziladi. “H.A.”dagi ilm va ilm ahli, adolatli va adolatsiz podsholar, saxiylik, kamtarlik, mehnatsevarlik kabi g‘oyalarning hikoyat va rivoyatlar libosida, afsonaviy obrazlarda berilgani Ozodiyning badiiy-estetik qarashlarini harakatga keltirgan. Mavzularni o‘z davri muammolariga moslashtirib yoritishda ma’naviy tayanch vazifasini bajargan.

N. an’analarini muvaffaqiyatli davom ettirgan shoirlardan yana biri Nurmuhammad Andalibning turkman yozma adabiyotida ham dostonnavis, ham g‘azalnavis shoir sifatida alohida o‘rni bor. “Layli va Majnun”, ”Yusuf va Zulayxo”, ”Boboravshan”, ”Zaynilarab” dostonlarini yaratishda Andalib Sharq adabiyotidagi dostonchilik tajribalaridan foydalangan. M-n, “Layli va Majnun” dostonidagi voqealar tizmasida, obraz yaratish prinsiplarida, aruz vaznida bitilgan she’riy shakllarda N. poeziyasi, “L.M.” ta’sirini ko‘rish mumkin. Andalib N. ijodiga ikki xil aspektda yondashgan: dostonchilik an’analarini davom ettirish; N. she’riyati ta’sirida g‘azallar, naziralar, muxammaslar yozish. Ikki badiiy shaklda ham shoir ijodiy individualligini ko‘rsata oldi. M-n, “Layli va Majnun” dostoni tashqi syujeti bo‘yicha N. dostoniga qanchalik o‘xshamasin, ichki mazmuni, obraz yaratish tamoyillarida katta farq bor. Layli, Majnun, Navfal, Ibn Salom, Zayd obrazlari, garchi dostonda bir xil nom b-n yuritilsada, xarakter-xususiyatlari ikki dostonda turlicha g‘oyaga xizmat qiladi. Aytaylik, N. dostonida Navfal adolatli sardor, da’voli ishlarni tinch yo‘l b-n hal qilishga urinadigan hukmdor. Boshqacha aytganda, bu obrazda N.ning ideali jamlangan. Andalibda esa Navfal ikkiyuzlamachi, makkor, hiylagar, bosqinchi timsolida gavdalanadi. N. Majnunni olim, shoirsifat, sadoqatli, oliyjanob shaxs qiyofasida gavdalantirgan bo‘lsa, Andalib talqinida, u shunchaki, ishq yo‘lida telba, haqiqiy majnundir. Bunday tafovut har bir obrazda mavjud.

Andalib g‘azalchilikda ham N.ga ergashishga intildi. Shoirning o‘ndan ortiq g‘azallariga naziralar yozib, muxammaslar bog‘lagani, mana shu yaqinlikning in’ikosi. N.ning “Kelmadi”, ”O‘lturgusi”, ”O‘n sakkiz yoshindadur”, “Ey, ko‘ngil”, ”Gulob aylab”, “Giriftorman, men yana” g‘azallariga bog‘lagan muxammaslari badiiy-estetik pafosi, fikr va tuyg‘ularning mushtarakligi, poetik ohangi jihatidan o‘quvchi qalbiga zavq bag‘ishlaydi:

Andalib-a nala eylap, bigam et konglung yeyin,
Jamm – saxbadf dengiz, gor, bayram et konglung yeyin,
Yetmesin asib xergiz maxkem et konglung yeyin
Ey Novayi bada birle xorram et konglung yeyin
Ne uchun kim bada giren eve gaygu gelmedi.

Andalibning “Ne balo xo‘b”, “Rashki parizod”, “Bo‘ldi Andalib”, “Tob ochdi”, “Jononiga yetsa” kabi g‘azallaridagi g‘oya talqini hamda ramziy obraz qo‘llashda N.ga ohangdoshlik muvaffaqiyatli chiqqan.

Turkman donishmand shoiri Maxtumquli Sharq mumtoz adabiyotidan behad ilhomlangan (Q.: Navoiy va Markaziy Osiyo xalqlari adabiyoti). Lirikaning eng go‘zal namunalarini yaratgan XIX asr turkman adabiyoti vakillaridan Mullanafas ham salaflari qatorida Sharq adabiyotidan

ijodiy o‘rgandi, ustozlariga ergashib, an’analarini rivojlantirdi, Firdavsiy, Nizomiy, Fuzuliy asarlari unga “ijod maktabi” bo‘ldi:

Rumuň gülşeni, hindi tawusy,
Ýalançy dünýäden ötermen asy,
Nyzamy, Nowaýy, ýene Firdöwsi,
Size mydam hormat goýandyr köňlüm.

Ko‘rinadiki, M. “Ko‘nglim” she’rida N.ga ham mudom hurmat tuyishini ifoda etgan.

Mullanafasning “Ko‘rmadim”, “Beqaror etdi meni”, “Ko‘zlaring”, “Dilbar”, “Qoldim bir choh ichinda”, “Yor senga”, “O‘rtanur”, “Rayhon erur”, “Bir go‘zal” radifli g‘azal va muxammaslarining ifoda shaklidan tortib, mazmun talqiniyu badiiy tasvir vositalarigacha N. g‘azallariga yaqinlik kuzatiladi. Har bir bayt yoki bandda, hatto har bir misrada N. g‘azallariga uyg‘unlik, shakliy o‘xshashlik bor. Bu holat, ayniqsa, “Zuhra-Tohir” dostonida turli qirralari b-n o‘ziga xos badiiy talqin etilgan. Doston syujetiga Sharq adabiyotidagi ishqiy romantik dostonlarning an’analari ham singdirilgan. Jumladan, asarning har tomonlama poetik mukammal chiqishida, xususan, obrazlar ruhiyatini ochishda muhim vosita sanalmish turli she’riy shakllardan foydalanishda N.ning ba’zi g‘azallariga murojaat yaxshi natija bergan. Shoir o‘z dunyoqarashi, o‘z estetik prinsipidan kelib chiqib, vaziyatga, obrazlar holatiga mos g‘azallar, muxammaslar yaratdi. N.ning 5 baytli “Gul” radifli ishqiy mavzuda yozilgan g‘azalida “gul”, “bulbul” poetik obrazlari orqali lirik qahramonning qalb ziddiyatidan so‘z ochilgan:

Orazingni bog‘ aro chun ko‘rdi, hayron
bo‘ldi gul,
Bargsiz qoldi, nedinkim, bas parishon
bo‘ldi gul...

Mullanafas g‘azalning badiiy xususiyatlari doston voqealariga hamohangligini, qahramonning mavjud vaziyatdagi holatiga mos tushishini his qilgan. Va dostonning bir epizodida mazkur g‘azal shaklidan foydalanib, “Gul” radifli olti baytli g‘azal yozadi:

Gul bilen bilbil gelip, gul ichre seyran kыldы gul,
Gul tamashasыn gorup, oz berkini gan
kыldы gul.
Bagbanы men bu gun, bag ichre gordum bülbül,
Bilbiling, surun, gorup cheki giriban kыldы gul.

She’rning vazni, qofiyasi, radifi, bo‘g‘in o‘lchovlari juda o‘xshash. “Gul”, ”bulbul” ramzlari ikki g‘azalda ham bor. Mullanafas g‘azali alohida olib qaralganda, mustaqil she’rga ham o‘xshab ketadi. G‘azallarning ichki mazmuni jiddiy farqlanadi. Poetik obrazlar ham har xil vazifani bajaradi. N. g‘azalidagi “gul”, “bulbul” obrazlari Mullanafas dostonida konkret shaxslarga nisbat beriladi. Mullanafas talqinida “gul” bu – Zuhra, “bulbul” esa Tohir. Mullanafas she’rida N. g‘azalida uchramaydigan 3 obraz bor. Bu – “bog‘bon” obrazi. Dostonda hikoya qilinishicha, Hasan bog‘bon tushki payt bog‘ oralab yurganida, Tohir b-n Zuhraning bir daraxt tagida yashirincha suhbatlashib o‘tirgani ustidan chiqib qoladi va ko‘rganlarini Zuhraning otasi Boboxonga yetkazadi. Mullanafas Hasan bog‘bon tilidan Zuhrani bog‘dagi gulga, Tohirni esa bulbulga qiyoslab, “Gul” radifli g‘azalni keltiradi. G‘azal doston voqeasiga, obrazlar xatti-harakatiga shunday payvandlanadiki, alohidaligi mutlaqo sezilmaydi.

Mullanafas bu usulni dostonning boshqa epizodlarida ham qo‘llagan. N. lirikasidan doston ruhiga mos, obrazlar psixologiyasini ochish imkonini beradigan g‘azallarni tanlab, ularga yo nazira yozgan yoki muxammas bog‘lagan N.ning “X.M.” devonidagi:

Gulshan ichra yo‘qtur oromim –
diloromim kerak,
Sarv-u gulni naylayin, sarvi gulandomim
kerak, –

bayti b-n boshlanadigan “Kerak” radifli g‘azalidan Mullanafas doston syujetida foydalanib, bir epizodda qahramonlardan birining ruhiy holatini berish ehtiyoji tug‘ilganda, unga muxammas bog‘laydi. Va muxammas doston syujetiga uyg‘unlashtiriladi:

Simi – zer derkar imesdir, simi – rugsarыm gerek,
Totы gushnы neyleyin, ol toti guftarыm gerek,
Gul gerekmesdir manga, gulchexre
gulzarыm gerek,
Sunbuli ursun xazan, sunbul kibi tarыm gerek,
Ьshk era Mejnun bolup men,
Leylidey yarыm gerek.

Mullanafas dostonni yaratishda N. an'analarining davomchisi ekanligini tasdiqlaydigan yana bir misol "Ayt" radifli g'azalga bitilgan taxmisdir:

Ey saba, zarыm mening arz ila jananыmga ayt,
Kanda gerseng yalbarыp jismim yakan
janыmga ayt,
Shamы – ovkatыm sыpatыn maxы
– tabanыmga ayt,
Kamatыmnыn xamlыgын servi
– xuramanыmga ayt.
Leblerimning teshneligini abы –
xayvanыmga ayt.

Muxammasdagi:

Zoxre janыmga xabar ber,
kaddыmnыsh nun bolgaын,
Ayrыlыk aklыmnы alыp divana –
mejnun bolganын –

kabi misralar oshiqning qalb hissiyotlarini ifoda etadi. N. g'azalining poetik unsurlari, lirik qahramon psixologiyasidagi bezovtalik ohangi Mullanafasga ilhom bergan, tayanch bo'lgan. Buyuk shoir an'analaridan doston syujetida maqsadga muvofiq foydalangani, ularni obrazlar faoliyatiga o'ziga xos uslubda singdirgani ijodiy individuallik va mahorat belgisidir.

XIX asr turkman adabiyotining Kamina, Seyidiy, Zeliliy, Zinhoriy, Tolibiy, Kotibiy singari shoirlari ham N.ni o'zlariga ustoz deb bilgan. Kaminaning ishqiy she'rlarida, yumor va satirasida, Seyidiyning vatanparvarlik mavzusidagi g'azal va she'rlarida, Zeliliyning axloqiy-ta'limiy xarakterdagi muxammas, g'azal, musaddas va musammanlarida, Zinhoriyning sharqona uslubda ijod etgan turli janrdagi nazmida N. she'riyatining ta'siri bor. Qayd etilishi lozim bo'lgan yana bir xususiyat N.da boshqalarga o'xshamagan fikrlar dunyosining borligi b-n bog'liqdir. Mazkur fikrlar olamiga kirmagan, uning asarlaridan g'oya olmagan turkman klassigi yo'q. Ko'rinadiki, N. asarlarining turkman tiliga tarjimalariga o'tgan asrning boshlarida kirishilgan. 1925-y. Abdulhakim Gulmuhammedov o'girgan "M.L." asari kitob holida bosiladi. Bu N. ijodidan namunalarni hozirgi Turkmaniston hududiga olib kirishdagi birinchi qadam edi. 1941-y. shoirning "X.M." devonidan saralab olingan turkum g'azallari tarjimasi "Chor devon" degan nomda chop etildi. Kitobdagi g'azallarni B.Kerboboyev, Y.Nosirli, P.Nurberdiyev, B.Seytaqov, D.Og'amammedov, K.Ishanov kabi ijodkorlar turkman tiliga tarjima qilgan. 1943-y. turkman tilida N.ning navbatdagi "Saylanan eserler"i 10 000 nusxada nashr qilindi. To'plamning oldingilardan farqi shundaki, kitobga shoir g'azallaridan tashqari, ruboiy va tuyuqlari, shuningdek, "F.Sh." dostonidan parcha ham kiritilgan. Tarjimonlarning safi ham kengayib, ular qatoriga Sh.Kekilov, H.Ismoilov, R.Aliyev, A.Alamishev, R.Seyidovlar ham qo'shilgan. Ushbu kitob N. ijodining rang-barang qirralari to'g'risida ma'lumot beradi.

O'tgan asrning 60-yillariga kelib, N. merosiga qiziqish har qachongidan ortib, mutarjimlarning yangi avlodi yetishdi. Faqat g'azallari emas, yirik-yirik dostonlari tarjimalariga ham qo'l urildi. 1965-y. taniqli turkman olimi va tarjimon R.Rejepov tomonidan "F.Sh." dostonining o'n ming nusxada turkman tilida bosilib chiqqani adabiy muhitning muhim voqeasi sifatida e'tirof etildi. Tarjimon kitobga N. ijodi, ayniqsa, "F.Sh." dostoni haqida so'zboshi o'rnidagi maqola ilova qilgan. Ilmiy aspektdagi mazkur so'zboshi R.Rejepovni nafaqat yirik tarjimon, N. ijodi, "F.Sh." dostonining mohir tadqiqotchisi ekanligini ham ko'rsatadi. N.ning boshqa dostonlarini ham turkmanchaga o'girilishida bu olim-tarjimonning xizmatlari tahsinga loyiq.

K.Gurbannepesov, N.Gullayev, T.Gurbanov, A.Mammedov, A.Ataboyevlarning N.dan qilgan tarjimalari turkman-o‘zbek adabiy aloqalarining muhim halqasidir.

N. ijodining Turkmanistonda ommalashishida turkman olimlari olib borgan ilmiy-tadqiqot ishlarining hissasi ham katta. N.shunoslik turkman adabiyotshunosligining bir tarmog‘i sifatida shakllangan. Bu borada fundamental ilmiy ishlar yozilgan, kitoblar bosilib, yuzlab maqolalar e’lon qilingan. B.Garriyev, M.Ko‘sayev, N.Gullayev, R.Aliyev, A.Meredov, R.Rejepov, A.Muradov, S.Garriyev, K.Atayev, T.Nepesov va U.Ilyasov, N.Esenmuradov, A.Mammedov kabi olimlarning tadqiqotlari n.shunoslik ilmiga alohida hissa bo‘lib qo‘shilgan.

Turkmanistonda N.ni shaxs sifatida qadrlaydigan yana bir manba – shoir haqida turkman xalqi to‘qigan afsona va rivoyatlar. Xalq orasida bu rivoyatlar “Mirali” degan nom b-n yuritiladi. Shoirning insonparvarligi, kamtarligi va saxiyligi, adolatpeshaligi, donishmandligi va topqirligi afsona ko‘rinishida, xilma-xil mazmundagi hikoyatlarda badiiy gavdalantiriladi. 1941-y. bu rivoyatlarni ilk marotaba P.Ag‘aliyev nashrga tayyorlab, “Mirali va Sulton Suyun” nomi b-n o‘z so‘zboshisida, ommaviy nusxada chop ettirdi. 1948-y. esa shoir haqida yaratilgan 20 dan ortiq afsona 2-marta B.Kerboboyev tahriri va so‘zboshisida o‘n besh ming nusxada kitob bo‘lib bosiladi. Bugina emas. Hatto turkman folklorida afsona va rivoyatlar asosida shoir haqida doston yaratilgani to‘g‘risida ham ma’lumotlar bor. So‘nggi yillarda ham Mirali (N.) haqida xalq to‘qigan rivoyatlar turli adabiy-badiiy nashrlarda, matbuotda ham muntazam berib borilayotgani turkman xalqining N. shaxsiga, ijtimoiy-siyosiy faoliyatiga qiziqishning bir ifodasidir. N. (Mirali) haqidagi rivoyat va afsonalar ikki qardosh xalq folklori aloqalarining muhim va mazmunli sahifasi bo‘lganidek, ulug‘ shoirga hurmatning yuksak ramzi hamdir.

Agar Markaziy Osiyoda yashagan har qanday xalqning adabiyoti to‘la va to‘g‘ri o‘rganilishi lozim bo‘lsa, unda, avvalo, N. asarlarini teran bir shaklda tadqiq qilinishi shart. Bu shart birinchilardan bo‘lib turkmanlarga oiddir. Yanayam to‘g‘rirog‘i, turkman mumtoz adabiyotini N.ga oid izlanishlarsiz o‘rganib bo‘lmaydi.

Ad.: *Андалып. Лирика. – Ашгабат, 1976; Молланепес. Лирика. – Ашгабат, 1973; Молланепес. Зохре-Тахыр. – Ашгабат, 1959; Sariyev B. Ali Şîr Nevâyî ve Türkmen edebiyati // Kitobda: Ali Şîr Nevâyî’nin eserleri ve kültürel etkileri. Başkent Üniversitesi Ali Şir Nevayi Araştırma ve Uygulama Merkezi Yayın No: 01. – Ankara, 2023; Garryýew S. Türkmen Edebiýatynyň Sowet Gündogary Halklarynyň Edebiýatlary bilen özara baglanyşygynyň taryhyndan. – Aşgabat, 1967; Nowaýy we Magtymgulý’. XVIII–X1X Asyr Türkmen Edebiýatynyň Taryhy Boýunça Oçerkler. – Aşgabat, 1967; Bertels Ý.E. Türkmen Halkynyň Edebi Geçmişi; Rejebow R. Nowaýynyň Döredijilik Ömri. A. Nowaý. Perhat we Şirin. – Aşgabat, 1965; Mustakov R. Magtymguly ve Gündogar Edebiyaty. – Aşgabat, 2014.*

K.Q., S.O‘.

NAVOIY VA UKRAIN ADABIYOTI – N. Ukrainada ham e’tibor qozongan shoirdir. Ukrain adabiyot va san’at namoyandalari 1938-y. da O‘zbekistonga N.ning 500 yilligiga katta tayyorgarlik olib borilayotgan davrda tashrif buyurib, yubiley b-n bog‘liq tadbirlar b-n tanishishgan hamda bu sohada Ukrainada amalga oshirilishi kerak bo‘lgan ishlarni rejalashtirib olishgan. Jumladan, shoirning hayoti va ijodi, u yashagan davr b-n yaqindan tanishgan iste’dodli so‘z san’atkori M.Bajan N.ning “F.Sh.” dostonini ukrain tiliga o‘giradi, “Go‘ri Amir maqbarasi” nomli she’r ham yozadi. Garchi mazkur tarjima 1938–1939-yy.da amalga oshirilgan bo‘lsa-da, Ikkinchi jahon urushi besaranjomliklari tufayli 1947-y.dagina nashr qilingan va N.ning 1948-y.da nishonlangan yubileyiga tuhfa qilingan. Tarjimon o‘z xotiralarida: “Men N.ni urushgacha bo‘lgan davrda

tarjima qilishga boshlagan edim. Mening tarjima daftarlarim – qoralamalarimni oilam evakuatsiya yillarida asrab, Kiyev ozod qilinishi b-n ularni menga topshirib, boshimni ko‘kka yetkurdi”, degan edi. M.Bajanning asarlarida obrazlar pishiq, fikrlar siqiq va mumtoz ohang ustuvordir. “F.Sh.” dostonini tarjima qilish ishida M.Bajan oldida katta qiyinchiliklar turar edi. U asliyatni saqlagan holda, N. dostonining butun boyligi, teranligi, uslubiy o‘ziga xosligini ukrain kitobxoniga aniq, ayni paytda, badiiy barkamolligi b-n yetkazib berishi kerak edi. G.Siderenkoning “Ukraina she’r tuzilishi” kitobida ta’kidlanganidek, “o‘z ijodining dastlabki yillaridan to so‘nggi davriga qadar bir asarning o‘zida butun boshli ritmik usullar tizimini birlashtirishdek qimmatbaho qobiliyatni saqlab kelgan”. “F.Sh.” dostonining mazmuni, undagi obrazlarning ma’naviy qiyofasi, voqealar sodir bo‘layotgan sharoit va uning jug‘rofiyasi M. Bajanni N. yashab ijod etgan davr hamda o‘sha davr adabiyotini o‘rganishga da’vat etdi. M.Bajan shu maqsadda ish boshlab, asar nomi b-n Sharqda ma’lum bo‘lgan manbalarni ham ko‘zdan kechirdi. Uning 1938-y.da O‘zbekistonda bo‘lishi, Samarqand kabi qadimiy shahar b-n yaqindan tanishuvi, O‘zbekiston haqida yozgan turkum sherlari doston tarjimasini amalga oshirishida yaqindan yordam berdi. O‘z navbatida M.Bajan N. merosining chuqur bilimdonlari prof. Y.E.Bertels, Oybek kabilar b-n maslahatlashdi. Sharq klassik she’r tuzilishini o‘rgandi. Masnaviyning o‘ziga xos xususiyatlariga, uning strofikasi, qofiyalanish tartibi, radif qo‘llash san’atiga alohida diqqat qildi. M.Bajan “F.Sh.” dostonini ukrain poeziyasining klassik tarjima vazni – besh stopali yamb b-n tarjima qildi, uni har jihatdan Sharq ishqiy romantik dostonlari xususiyatiga muvofiqlashtirdi. Qudratli daryo kabi ravon va sokin yamb originalning aruz sistemasiga kirgan o‘n bir hijoli vaznga to‘g‘ri keladi:

Чорні мулика на лиці, немов,
Той лиходий, шо цукор красть прийивов.

M.Bajan tomonidan amalga oshirilgan tarjima doston badiiy barkamolligini ifodalab berish jihatidangina emas, tarjimon tomonidan “F.Sh.”-dagi poetik leksikani ukrain tilining vositalari orqali ifodalab berish, baytlarning izchil strofikasini saqlash, qofiya va radiflarning ishlatilishi jihatidan ham katta ijodiy mehnat samarasi ekanligi ko‘zga tashlanib turadi:

У над сто сотен локтів довшини,
Він тягая з тоі и цеі сторони.

U ishqiy-qahramonlik dostoni motivlari, obrazlari, tasviriy vositalarini tarjima orqali jonlantirib, lirik, tragik lavhalarni obrazli ifodalashda ukrain xalq tili boyliklaridan foydalanib, eng munosib so‘zlar topadi. Lirik qahramon qiyofasi, ichki holati tasvirlaridagi fikr jilolarini tarjimada ham aynan berishga harakat qiladi. Dostondagi Farhod u-n yilni to‘rt fasliga moslab qurilgan qasrlardagi manzaralar tabiat ko‘rinishlari b-n uyg‘unlashib ketadi. Shu tasvirlar davomida N. qishning nihoyatda sovuq kelganligini jonlantirish u-n ayozda qolgan bir faqirning lahzalik portretini chizadi:

Kafin og‘zi bila muflis dam aylab,
Ikki tiz ko‘ksi ichra mahkam aylab.

Qo‘lin qo‘ltug‘lar ichra mu’takif ham,
Qulog‘lardin o‘tub iki katif ham.

Real vaziyatdagi jonli holat ifodasi bo‘lgan bu manzara M.Bajan tarjimasida butun noziklikllari b-n ifodalangan:

Бедан каліна до грудей зібгав,
У під пахвами руки заховав.
Не змерлі пальці марно дмуха він,
А плечи зводов понадвуха він.

Bu o‘rinda ichki qofiya, radiflar dostondagidek saqlangan.

M.Bajanning “F.Sh.” dostoni tarjimasining dastlabki nashrlarida asarning an’anaviy mu-

qaddima, xotima qismlari tushirib qoldirilgan edi. Doston tarjimasi ustida ishlarini davom ettirgan mutarjim yangi nashrlarida bu kamchiliklarni bartaraf etgani tahsinga sazovor. N. merosining ukrain kitobxonlari o‘rtasida ancha keng yoyilishi, shoir shaxsiyati va ijodiga qiziqishning ortishida O‘zbekiston xalq yozuvchisi Oybek qalamiga mansub “Navoiy” dostonining N.Tereshchenko tomonidan ukrain tiliga o‘girilishi e’tiborli adabiy hodisadir. Yana bir tarjimon G.Kovalenko Oybekning “Navoiy” romanini tarjimasi orqali ukrain xalqini N. siymosi b-n tanishtiradi. O‘sha yillari ukrain yozuvchisi Ivan Lening ham N. g‘azallaridan tarjimalar qilgan. Shuningdek, “Ukraina” jurnalining 1946-y. 1-sonida N.Tereshchenkoning N. “Ichsangiz may suvidin ishrat uyin obod etib” misrasi b-n boshlanuvchi g‘azali tarjimasi e’lon qilindi. Unda tarjimon N. g‘azalining butun nafosatini ukrain o‘quvchisiga yetkazishga harakat qilgan:

Якшо весело ніте ви, і безжурні ваші дні,
Хоч ковток плесніте на земле,
мов на зградку помні.

N.Tereshchenko g‘azalni yetti turoqli xorim b-n tarjima qiladi. Originaldan 2 va 5-baytlarni tushirib qoldiradi. Mutarjim mazkur g‘azalning quyidagi:

Istama la’lin, Navoiykim, marazda emganur,
Tab’ini sihhatlik el sharbat bila mu’tod etib.

maqta’ baytini rus tiliga tarjima qilgan N.Lebedevga ko‘ra ham aniqroq ifodalab bergan:

Губ рубіновых напоів, Навоі, ти білыш не пий,
Той, кто пив шербет здоровым,
від шербету мов огні.

N. g‘azallarining N.Tereshchenko tomonidan yana qator tarjimalari “Vitchizna” va “Ukraina” jurnallari orqali o‘quvchilarga yetib bordi.

N. lirik asarlarini o‘z tillarida ifodalashga harakat qilgan mutarjimlarning mahorati shundaki, ular o‘z ishlarida, eng avvalo, ulug‘ shoir badiiy mahorati va g‘oyaviy yo‘nalishini to‘liq aks ettirishga urinadilar:

Над головою моей осінных днів листопед,
Але при тобі, кохана, не мов розувітат сад.

1968-y.da N.Tereshchenkoning galdagi yangi tarjimalari qatorida ukrain shoirlaridan B.Stepanyuk va S.Telnyuklarning N. lirikasidan ilk tarjimalari matbuot yuzini ko‘rdi. Xususan, N. “Shayx” radifli g‘azalidagi boy dunyoviy qarashlari, o‘zbek tiliga xos istehzo, qochiriq va tanbehlari ukrain tilida ham jozibador ottenkalari b-n berilishi, turkiy, arabiy va forsiy so‘zlarning eng nozik ma’no qirralarigacha yuzaga chiqaruvchi obrazlarning topilishi va tanlanishi tarjima muvaffaqiyatini ta’minlagan.

Zero, N. asarlarini ukrain tiliga tarjima qilish g‘oyat murakkabdir. Uzun va qisqa bo‘g‘inlar almashinuviga asoslangan ukrain she’r tuzilishi vositalari original ritmikasini aniq ifodalash imkonini bermaydi. N.Tereshchenko esa mahorat b-n bu qiyinchiliklarni ma’lum darajada bartaraf etishga erishdi. B.Stepanyuk va S.Telnyuklarning tarjimalari masalasiga kelsak, ular originaldagi mundarija va badiiylikni ukrain tilida aynan ifodalashda oqsashgan.

Shuningdek, N. tavalludining 550 yilligi munosabati b-n ukrain shoiri G.Xalimonenko N. g‘azallarining yangi tarjimalarini yaratdi. Ular orasida shoirning “Etmas” radifli g‘azali mutarjim tomonidan asliyatni har jihatdan yorqin ifodalab berishi b-n diqqatga molik:

N.:
Meni men istagan o‘z suhbatig‘a
arjumand etmas,
Meni istar kishining suhbatin ko‘nglum
pisand etmas.

Tarj.:

З ким я хочу размовляти,
той на мене не звожа,
Хто к мне готовый слухать,
тих бо сердце зневожат.

Ta’kidlash joizki, G.Xalimonenko turkiy tilni mukammal bilgan tarjimonlardan sanaladi. Shunga ko‘ra ham u asl nusxaning g‘oyaviy mundarijasi va badiiy nafosatini ta’sirchan ifodalashga erishgan.

Yirik ukrain tanqidchisi A.Klimenkoning N. merosi xususida mulohaza yuritgan maqola va risolalari O‘zbekiston va Ukrainada ko‘p marta chop etilgan. Ukrain adabiyotshunosi Oleksey Kundzich o‘zining “Tarjima mahorati” nomli tadqiqotida N. asarlarining tarjimalari masalasiga to‘xtalib: “Ukrain tarjimonlari o‘tgan asrlar she’riyatining Shota Rustaveli, Nizomiy, N. kabi gigantlarini hamda Sharq xalqlari eposinining butun hikmati va beqiyos yorqin nafosatini o‘z xalqlari u-n inkishof etdilar”, – der ekan, N.ga alohida e’tibor bergani ko‘rinadi.

Bularning bari ulug‘ mutafakkir N.ga e’tibor hamda o‘zbek-ukrain adabiyotlari o‘rtasidagi adabiy aloqalarning mustahkamlanib borganini ko‘rsatadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Бадоье ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик, 3-жилд. – Т., 2011; Клименко А. Дўстлик рамзи. – Т., 1974; О.Кундзич. Мастерство перевода. – М., 1959; Клименко А. Украинада навоийшунослик // Халқ сўзи, 1991-йил 26-январь.*

S.O‘.

NAVOIY VA FORS-TOJIK ADABIYOTI – Ma’lumki, N.ning fors-tojik tilidagi asarlari uning ijodida alohida o‘rin tutganidek, fors-tojik adabiyoti tarixida ham yuksak e’tiborga molikdir. Zero, N. o‘zining forsiy tildagi durdona asarlari b-n fors-tojik adabiyoti ravnaqiga salmoqli hissa qo‘shgan. N. bu buyuk adabiyotda ham o‘zining munosib o‘rniga ega mumtoz so‘z san’atkori va ulkan namoyandalaridan biridir. N. ustozi va maslakdoshi Abdurahmon Jomiy b-n birgalikda XV asr Hirot adabiy maktabining boshida turib, juda ko‘p forsigo‘y shoir, olim va ilm toliblariga ustozlik va homiylik qildi. Tojikiston, Eron, Afg‘oniston, Pokiston va boshqa mamlakatlarda uni fors-tojik adabiyotining jonkuyar homiysi va zabardast zullisonayn shoiri sifatida biladilar va hurmat qiladilar. Sharq so‘z san’atining bilimdon va zahmatkash tadqiqotchisi S.Ayniy ta’biri b-n aytganda, “Alisher Navoiyning fors-tojik adabiyoti ravnaqi yo‘lidagi xizmatlari har taraflama” bo‘lib, ularni quyidagi yo‘nalishlarda o‘rganish mumkin: N. va forsiy adabiyoti targ‘ibi; N.ning boy va rang-barang forsiy merosi; N.ning fors-tojik ilm-u adab ahliga homiyligi; N.ning forsiy adabiyotga ta’siri; N. forsiy adabiyot tarjimoni.

N. forsiy tildagi adabiyot namunalari b-n juda erta tanishgan. Uning “M.N.”da qayd etishicha, mashhur mutasavvif shoir Qosim Anvorning bir she’rini aytib berganida, uch yosh b-n to‘rt yosh orasida bo‘lgan. “L.T.”da esa shoirning bolalik chog‘laridayoq F.Attorning 5000 baytga yaqin “Mantiq ut-tayr” dostonini to‘la yod olganligini anglatuvchi ma’lumot mavjud. Maktab tahsili davrida N. Rumiy, Anvariy, Sa’diy singari buyuk san’atkorlarning asarlarini qiziqib mutolaa qilgan. U o‘smirlikda Mir Shohiy, Shayx Kamol Turbatiy kabi shoirlar b-n aloqa bog‘lashi, ayniqsa, A.Jomiy b-n ustoz-u shogirdlik va do‘stlik, maslakdoshlik munosabatiga erishishi adabiyot orqali yuzaga kelgan. N. o‘z tazkirasida yana Amir Shayxim Suhayliy, Osafiy, Sog‘ariy, Binoiy, Hiloliy singari o‘nlab forsiynavis ijodkorlar b-n o‘zaro ham do‘stona, ham ijodiy aloqada bo‘lganligini so‘zlagan. M-n, ulardan biri to‘g‘risida “faqir bila musohib erdi”, deyilsa, boshqa biri “xushsuhbat va shirin kalom erdi” deb xotirlanadi.

N. o‘zi ta’kidlashicha, 30 yildan ziyod vaqt mobaynida forsiy shoirlar unga asarlarini keltirib, undan maslahat va fikr so‘raganlar, ijod namunalarini tahrir qilib berishini iltimos qilganlar.

Hatto A.Jomiy ham nimaiki yozmasin, dastlab N.ga ko‘rsatib, uning maslahatini olgan. Bu haqda uning o‘zi “M.L.”da hatto “forsiy so‘zda jami’ alar so‘zidin yuqoriroq so‘z” bo‘lmagan A.Jomiy ham “ko‘prak kutub va rasoil va g‘azaliyot va qasoyiddaki, maoniy gavharlarin nazm silkiga kiydirur erdilar va zamir nihonxonasidin anjuman tamoshogohig‘a jilva berur erdilar, aning musavvadasidin burunroq bu faqirg‘a iltifot va e’tiqod yuzidin berur erdilarkim, “Bu avroqni ol va boshtin-ayog‘ig‘a nazar sol, xotiringg‘a har ne aytqudek so‘z kelsa ayt”, deb va har ne ishorat bo‘lg‘onikim, mazkur bo‘ldi, zohir qilsam, maqbul tushar erdi”, – deb yozadi. Yana forsiy shoirlar asarlari yuzasidan bo‘lgan bahs-u munozaralarda ko‘pincha hakamlik qilgan va yutib chiqqan. Salmon Sovajiyning mashhur masnu’ qasidasiga javob aytgan. Tarse’ san’ati vositasida ruboiy yaratgan. Abdulloh Hotifiy shoirning she’riyatdagi mahoratiga juda yuksak baho berib, uni arab shoiri Hasson, ulkan so‘z ustalari Firdavsiy, Hoqoniy, Amir Xusrav Dehlaviy b-n taqqoslaydi va N. o‘z zamonida bu buyuk adiblar ko‘tarilgan darajadan yanada yuqoriroq pog‘onaga ko‘tarilganini e’tirof etdi. N.ning forsiy asarlari o‘z zamonida shuhrat topganligini esa Mavlono Xondamirning bergan bahosidan ham bilsa bo‘ladi. Tarixchi o‘zining “Makorim ul-axloq” asarida bu xususda quyidagicha ma’lumot beradi: “...Arab va Ajam mamlakatlari atrofidagi go‘shanishin darveshlar ul hazratning shavqli she’rlarining ohangidan lazzatlanib, uni zo‘r g‘ayrat b-n izlab yuradilar. Shoh va gado, yosh va qari, musulmon va kofir, yaxshi va yomon ul hazratning go‘zal nazmlari mazkur va butun xalq ommasi va ayrim tabaqalarning ko‘ngil sahifalarida va qalb lavhalarida muborak she’rlari naqshlangandir. Shuning u-n Xito va Xo‘tan mamlakatlarining chegaralaridan boshlab, to Rum va G‘arb mamlakatlarining oxirigacha Sening yaxshi sifatlaring minbardagi notiq maqtovisiz butun olamga yoyilgan. Sening noming tanga ustiga naqshlanmagan bo‘lsa-da, hammaning ko‘ngliga oltin ila naqshlangan”.

N. turkiy adabiyotning jonkuyar va yuksak targ‘ibotchisi bo‘lish b-n birga, bir umr forsiy adabiyotni ham targ‘ib qildi, hatto uning eng ilg‘or tajriba va an’analarini turkiy adabiyotga joriy qilishga uringan. Bu haqda uning o‘zi “M.A.” asarida: *“Ajam shuarosi va furs fusahosi har qaysi uslubdakim, so‘z arusig‘a jilva va namoyish berib erdilar, turk tili bila qalam surdum va har nechuk qoidadakim, ma’ni abkorig‘a ziynat va oroyish ko‘rguzub erdilar, chig‘atoy lafzi bila qalam urdum”,* deb yozadi.

Nizomiy Ganjaviy, Sa’diy Sheroziy, Farididdin Attor, Amir Xusrav Dehlaviy, Jaloliddin Rumiy, Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy kabi bu adabiyotning yirik namoyandalari asarlari uning u-n namuna bo‘lgan. “M.Q.”dagi she’r va shoirlar haqidagi tasnifi uning forsiydagi barcha mashhur namoyandalari ijodidan to‘la xabardor bo‘lganini ko‘rsatadi. 15 yoshida zullisonayn shoir sifatida tanilgan N. o‘zbek tili b-n birga, fors-tojik tilida ham Foniy taxallusi b-n samarali ijod qilgan. “Yoshlik chog‘laridayoq ikki til egasi – turkiy shevada sohibi fan, forsiyda sohibi fazl bo‘ldi”, – deb yozadi bu haqda Davlatshoh Samarqandiy. Voqean, mavjud an’analar ta’sirida uning dastlabki mashqlari ham forsiyda edi. U fors-tojikchada yozishni bir umr kanda qilmagan. Jomiy va Husayn Boyqaro uni forsiyda ham ijod qilishga da’vat etib turganlar.

N.ning forsiyda qalam tebratishining birinchi sababi ulug‘ fors-tojik so‘z san’atkorlarining ta’siri bo‘lsa, ikkinchidan, XV asrda forsiy tilning hali adabiy til sifatidagi hukmron mavqeyi baland edi, uchinchidan esa o‘zining forsiyda ham qalam tebrata olishi, bu borada birovdan kam emasligini isbotlash edi, deyish mumkin. Shoirning o‘zi ikki tilda yozgan asarlari haqida go‘yo so‘z bozorining bir tomonida shirinliklar, ikkinchi tomonida esa zargarlik do‘konini ochgandekman, deya lutf etgan edi:

Ma’niyi shirin-u ranginam ba turkiy behadast,
Forsi ham la’l-u durhoyi samin gar bingari.
Go‘yiyo dar rastayi bozori suxan bikshudaam,
Yak taraf do‘koni qannodi-yu yak so‘ zargari.

Tarj.: Turkiy tilda latif va rang-barang so‘zlarim had-hisobsizdir, e’tibor qilsang, forsiy so‘zlarim ham la’l va qimmatbaho marvaridlardir. Go‘yoki haqiqatda so‘z bozorini ochganga o‘xshayman: bir tomonda qandolat do‘koni-yu, bir tomonda zargarlik.

Binobarin, N. turkiy adabiyotni yuksaltirishda fors-tojik adabiyotiga qancha suyangan bo‘lsa, forsiy adabiyotni rivojlantirishda turkiy adabiyotning tajribalaridan ham istifoda etdi. U g‘azalchilikda H.Sheroziy, X.Dehlaviy, A.Jomiy tajribalaridan ilhomlangan, “X.” yaratishda ta’sirlangan salaflarining xizmatlarini ham u alohida samimiyat b-n e’tirof etadi. Avvalo, “X.M.”ni tuzib bo‘lgach, 1495-1500-yy.da fors-tojik tilidagi ijod namunalarini ham to‘plab, “D.F.” (“Foniy devoni”)ni tartib beradi. N. yoshlikdan fors-tojik tilida bitgan she’rlarini yig‘ib borgan va Foniy taxallusini qo‘llagan. Ayniqsa, o‘zi yaxshi ko‘rgan va eng tab’i baland shoirlarning devonini o‘qib, ularga tatabbu’ va ular tavrida g‘azallar bitgan. Uning o‘zi bu haqda “M.L.” asarida shunday deydi: “Yana forsiy g‘azaliyot devoni Xoja Hofiz tavridakim, jami’ suxan adolar va nazmpiyrolar nazarida mustahsan va matbu’dur, tartib beribmenkim, olti mingdin ab’yoti adadi ko‘prakdurki, ko‘prak ul hazrat she’riga tatabbu’ voqe’ bo‘lubdur. Va ba’zi Hazrat Shayx Muslihiddin Sa’diy quddisa sirruhug‘akim g‘azal tavri muxtariidur. Va ba’zi Mir Xusravgakim, ishq otashkadasining shu’laangizidur va dard g‘aribxonasining ashkrezi. Va ba’zi Hazrat Maxdumiy Nurang‘akim, (Abdurahmon Jomiyga – R.S.) kamol avjining mehri lomiidur va mazkur bo‘lg‘on azizlar holotining jomiiki, bu devon xaloyiq arosida shoye’dur va ro‘zgor ahlining tab’lari ul sari roje’ va anda ko‘p turluk dilkash adolar va dilpazir ma’nolar voqe’durki, tafsili bu faqirdin munosib emas. Va anda har nav’ nazm asnofidin, misli: muqattaot va ruboiyyot va masnaviy va ta’rix va lug‘az va ul jumladin besh yuzga yaqin muammokim, ko‘pi Hazrat Maxdumiy Nuran muborak nazarig‘a yetibdur va ul hazratning isloh va tahsini sharafin kasb etibdurkim, xomamdin ro‘zgor safhasiga yozilibdur va qalamim laylu nahor avroqida naqsh qilibdur”. Diqqat qilinsa, N. devonga qisqa, ammo chuqur mazmunli tavsif berib, uning badiiy xususiyatlari-yu mazmun mundarijasini ham, shakl-u sifatini ham, umumiy hajmini ham yaxshi ochib bergan. Yuqorida N. forsiy she’rlarining Jomiy nazaridan o‘tkazganligini va uning tahsiniga loyiq ko‘rilganligini ham alohida qayd etgan. 12 ming misra she’rdan tashkil topgan “D.F.” Hofiz Sheroziy devoniga deyarli teng keladi. Agar “S.Z.” va “Fusuli arbaa” turkumlariga kirgan o‘n qasidasi va adabiyotshunoslikka oid “R.M.” asarini ham qo‘shsak, shoirning forsiy tildagi merosi ancha salmoqli ekani ma’lum bo‘ladi.

Taniqli adabiyotshunos va manbashunos olim H.Sulaymonovning ta’kidlashicha, “Devoni Foniy”da N. izdoshlik qilgan shoirlar adadiga boqilsa, undagi 554 ta g‘azalning 237 tasi Hofiz Sheroziyga, 52 tasi Abdurahmon Jomiyga, 33 tasi Amir Xusrav Dehlaviyga, 25 tasi Sa’diy Sheroziyga, 5 tasi Mavlono Kotibiyga, 5 tasi, Mavlono Shohiyga, 4 tasi Kamol Xo‘jandiyga va boshqalarga nazira qilib yozilgan. Akad. B.Valixo‘jayev “Devoni Foniy” nusxalarini o‘rganib chiqib, ulardagi she’riy janrlar miqdorini quyidagicha deb ko‘rsatadi: 10 qasida, 554 g‘azal, 1 musaddas, 1 marsiya, 72 qit’a, 73 ruboiy, 16 ta’rix, 373 muammo, 9 lug‘z. Olim ularning miqdorini 1109 ta deb belgilab, umumiy hajmi 6179 bayt ekanligini ta’kidlaydi. Adabiyotshunos olim S.Rafiddinovning qayd etishicha, Foniy g‘azallarining aksari Hofiz g‘azallariga javob tarzida yozilgan bo‘lib (211 ta tatabbu’), Shayx Sa’diyga (22 tatabbu’, 2 tavr), Amir Xusrav Dehlaviyga (32 tatabbu’), Amir Nizomiddin Suhayliyga (3 tatabbu’), Mavlono Jaloliddin Rumiyga (1 tavr), Salmon Sovajiyga (2 tatabbu’), Amirshohi Sabzavoriyga (1 tatabbu’, 1 tavr), Kamol Xo‘jandiyga (4 tatabbu’), Sohib Balxiyga (1 tatabbu’), Shamsiddin Muhammad Kotibiyga (1 tatabbu’), Mavlono Jomiyga (31 tatabbu’, 8 tavr) ham javoban yozilgan.

Adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan bilamizki, Sharqda nazirachilik an’anasi oddiy taqlidchilik emas. U qaysidir ma’noda ijodiy maktab, ustozlarga ehtirom ko‘rsatish vositasi bo‘-

lish b-n birga ijodiy musobaqa, bellashish maydoni, shoirning salohiyatini ko‘rsatadigan adabiy-badiiy janrdir. Ulug‘ shoirlar ham boshqa shoirlarga tatabbu’ qilishgan. N. ham fors-tojik she’riyatining Hofiz Sheroziy, Sa’diy Sheroziy, Xusrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiy kabi ulkan namoyandalari ijodiga tatabbu’ – izdoshlik qilganini aytgan bo‘lsa-da, qaysidir ma’noda ular b-n ijodiy musobaqalashgan va ayrim o‘rinlarda ulardan ham ustun she’rlar yozgan. Buni H.Sulaymon, Sh.Shomuhamedov, A.Mirzoyev, R.Hodizoda, N.Mallayev kabi bir qator olimlar ham o‘z ishlarida ta’kidlab o‘tishgan.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, N. fors-tojik tilidagi ijodini yaratishda ko‘proq Hofiz Sheroziyga tayangan, undan ta’sirlanib ilhomlangan, uni “yagonayi asr” deb atagan. U fors tilida buyuk salafi Xoja Hofiz g‘azallariga eng ko‘p: 211 ta tatabbu’ qilgani va uning tavrida 20 ta g‘azal yozgani bejiz emas. Ustoz n.shunos A.Hayitmetov aytganidek, “Devoni Foniy”ni N.ning “Hofiznoma”si deb atash mumkin. N. g‘azallarida ham Hofizni, unga qo‘shib Jomiyni maqtaydi, ularga ergashish lozimligini ta’kidlab o‘tadi:

Shahi-yu rif’at agar orzu kuni, Foniy,
G‘ulomi Hofiz-u xoki janobi Jomiy bosh.

Tarj.: Ey Foniy, agar (so‘z mulkida) shohlik va yuksak martabani orzu qilsang, Hofizning g‘ulomi-yu Jomiy ostonasining tuprog‘i bo‘l.

Darhaqiqat, N. fors-tojikcha she’rlarida Hofiz va Jomiylarni bir qator baytlarida tilga olib, ularni maqtab o‘tadi:

Foniyo, jomi fano chun nakasham Hofizvor,
Ki hama dar ravishi Hofiz-u Jomiy binam?

Tarj.: Ey Foniy, fano jomini nima u-n Hofiz yanglig‘ sipqarmay, (chunki men foniylikning) hammasini Hofiz-u Jomiy yo‘lida ko‘raman.

Xisrav-u Hofiz turo, Foniy, agar hodiand,
Payraviyi Jomiyat hast ba vajhi Hasan.

Tarj.: Ey Foniy, Xisrav bilan Hofiz senga yo‘l ko‘rsatuvchi bo‘lsalar ham, seni Jomiyga payravliging eng yaxshidir.

Ulug‘ shoir Sa’diy Sheroziy, Xusrav Dehlaviy va Hasan Dehlaviy kabi Sharqning mashhur shoirlarini ham ehtirom b-n tilga oladi. U Sa’diy haqida bir baytida shunday deydi:

Foniy, ba rahi Sa’diy agar zad qadame chand,
Bo o‘ suxanash bin, ki chu shir-u shakar aftod.

Tarj.: Foniy, agar Sa’diy yo‘lidan bir necha qadam bosdi, qarangki, uning so‘zi Sa’diyniki bilan shir-u shakardek bo‘ldi.

Tojik olimi Muhammad Ali Xurosoniyga ko‘ra ham N. o‘zining fors-tojikcha she’rlarida ko‘proq Xoja Hofiz va Mavlono Jomiyning g‘azallariga mayl va husni tavajjuh ko‘rsatgan. U 526 ta javob va javob bo‘lmagan g‘azallaridan 237 tasini Hofiz g‘azallariga javob-u tatabbu’ va payrav sifatida yozgan bo‘lsa, Abdurahmon Jomiyga 57 tasini tavr-u tazmin va payrav sifatida ijod qilgan.

Ko‘rinadiki, N. nomini tilga olgan forsigo‘y shoirlar orasida eng ko‘p Hofizdan ta’sirlangan. Shoir o‘zining javob tariqasidagi g‘azallarining 1-qismiga “Dar tatabbu’yi Xoja Hofiz” deb sarlavha qo‘ygan bo‘lsa, 2-qismni esa “Dar tavri Xoja” deb nomlagan.

N. tatabbu’ va tazmin san’atining turli usullariga murojaat etgan va yangi usullar ham kashf etgan. “Devoni Foniy” sarlavhalaridan ham ma’lum bo‘ladiki, ulug‘ shoir fors-tojik shoirlarining g‘azallariga tatabbu’ qilgan, she’rlarining tavrida (uslubida) g‘azal yozgan, o‘zi ham biror shoir uslubiga o‘xshash mustaqil g‘azallar ijod qilgan. Shuning u-n “D.F.”da N.(Foniy)ning o‘ziga tegishli bo‘lgan g‘azallari ham o‘rin olgan. “D.F.”dagi original g‘azallarga shoir “Muxtara” va “Ixtiro” deb sarlavha qo‘ygan bo‘lib, ularning soni 50 dan ortiq. N. tatabbu’larini shunchaki buyuk salaflari ijodidan ilhomlanib yozmagan. U tatabbu’ vositasida ustoz so‘z san’atkorlari b-n misrama-misra

ijodiy musobaqaga kirishadi va mahorat bobida ulardan qolishmasligini isbotlaydi.

N. – Foniy tatabbu'ning oddiy hodisa emas, balki u ham o'ziga xos ijod yo'nalishi ekanligini bir qit'asida ta'kidlab o'tadi:

Tatabbu' kardani Foni dar ash'or,
Na az da'vo-yu ne az xudnamoyist.
Chu arbobi suxan sohibdilonand,
Murodash az dari dilho gadoyist.

Tarj.: Foniyning she'riyatdagi tatabbu'lari da'vo qilish yoki o'zini ko'rsatishga intilishi emas, balki "sohibdil" bo'lgan so'z arboblari eshigidan gadoylik qilishdir...

N. fors-tojik she'riyati muazzam siymolarining durdona g'azallarini tatabbu' u-n tanlab, ayni vazn, qofiya va radifda ular qalamga olgan mavzuni rivojlantiradi, teran tafakkur qudrati va betakror shoirlik salohiyati b-n uning ustozlari nazaridan chetda qolgan yangi qirralarini ochadi, favqulodda badiiy kashfiyotlar b-n ularni boyitadi. Nuktadon olim A.Mirzoyev shoirning Hofizga tatabbu'lari qiyosi misolida aytganidek, bu tatabbu'larning qaysi biri mahorat va badiiyat jihatidan salaflari g'azali b-n bir darajada turishi, qaysi birlari mavzuni rivojlantirgani va yangi qirrasini kashf etganiga ko'ra ulardan bir pog'ona yuksakka ko'tarilgani kabi masalalar har tomonlama keng va chuqur o'rganilib, tatabbu'navisning beqiyos shoirlik salohiyati barcha qirralari b-n ochib berilishi kerak. A.Mirzoyevning nazaricha, "Alisher Navoiyning fors-tojik she'riyatida ham ustozligi va yuksak mahorat ko'rsatganligini uning javobiya yoki mustaqil g'azallarining har birida, ma'lum darajada, aniq ko'rish mumkin".

Shoirning tatabbu', tavr va muxtara' she'rlarida, asosan, ishq-muhabbat mavzusi kengroq yoritilib, tasavvufiy-majoziy timsol va uslublarda ifoda etilgan. N. (Foniy) g'azallarida, ishq, may, soqiy, piri mayxona, din-u zuhd, qadah, dayri mug'on, fano, baqo, rind, mug'bacha, mayxona, vasl kabi so'zlarni ko'p qo'llaydi va ular vositasida so'fiyona, irfoniy qarashlarini ifoda etadi. Bundan tashqari, she'rlarda odam va olam, oshiq va ma'shuqlik, hayot va o'lim, ezgulik va yovuzlik, dunyo va oxirat, jannat va do'zax kabi mavzularga ham munosabat bildirib o'tadi. Umuman, hayot lazzatlari, may va mutrib, yor va bahor go'zalligi, inson va uning yaxshi xislatlari, ma'shuqning husni va ishvalari, ishq yo'lidagi yaxshilik va yomonlik, oshiqning alamli shikoyatlari, ayriliq iztiroblari kabi an'anaviy mavzular N. (Foniy) she'rlarining javharini tashkil etadi.

Hozircha "Devoni Foniy"ning Parijdagi 285, 1345, Tehrondagi 15002, Turkiyadagi 3850, 1952 raqamli qo'lyozmalari borligidan ham bilamizki, shoirning forsiy devoni o'z davridayoq ancha mashhur bo'lgan. Bu devonning Eron va Tojikiston kabi davlatlarda arab va kirill alifbolarida nashr bo'lgani esa unga nisbatan katta qiziqish bo'lganligidan dalolat beradi.

Aytish kerakki, N.ning forsiy ijodiyotini o'rganish tarixiga nazar tashlansa, "D.F."ni dastlab Sadriddin Ayniy o'rganib, 1920-yy. N.ni fors-tojik adabiyoti vakillari qatoriga qo'ydi va 1926-y. Moskvada nashr bo'lgan "Tojik adabiyoti namunasi" kitobiga uning "Tuhfat ul-afkor" qasidasidan 18 bayt kiritdi.

1941-y. N. tavalludining 500 yilligiga mehmon bo'lib kelgan Eron olimi Ali Asg'ar Hikmat "D.F."ning Tehron nusxasi haqida xabar berib, keyinchalik 1963-y. mazkur nusxani Tehronda nashrdan chiqardi.

Yurtimizda esa "D.F." 2002-2003 va 2011-yy. ikki marta nashr bo'lib, xalqimiz qo'liga yetib bordi (Q.: "Devoni Foniy" nashrlari haqida"). "D.F." tarkibida g'azallardan tashqari "Sittayi zaruriya" ("Olti zarurat"), "Fusuli arbaa" ("To'rt fasl") qasidalari, nomli 2 ta qasidalar to'plami, "M." asari, Jomiy vafotiga bag'ishlangan marsiya, qit'a, ruboiy va lug'zlar ham joy olgan bo'lib, ularning har biri yuksak saviyada, mazmunan teran va shaklan mukammal suratda yozilgan. Har bir asar o'z janri xususiyatiga ko'ra, forsiy va turkiy adabiyotning eng nodir namunalaridan sanaladi. 2 ta qasidalar to'plamidan biri-

ning nomi “Sittayi zaruriya” (“Olti zarurat”) deb nomlanib, 6 qasidani o‘z ichiga oladi: 1. “Ruh ul-quds” (“Pok ruh”) − 132 bayt. 2. “Ayn ul-hayot” (“Hayot chashmasi”) − 106 bayt. 3. “Tuhfat ul-afkor” (“Tafakkur tuhfasi”) − 99 bayt. 4. “Qut ul-qulub” (“Qalblar ozig‘i”) − 120 bayt. 5. “Minhoj un-najot” (“Najot yo‘li”) − 138 bayt. 6. “Nasim ul-xuld” (“Jannat nasimi”) − 129 bayt. “Fusuli arbaa” qasidalar turkumi esa yil fasllariga bag‘ishlangan 4 qasidadan iborat: 1. “Saraton” (“Yoz”) − 71 bayt. 2. “Xazon” (“Kuz”) − 33 bayt. 3. “Bahor” − 57 bayt. 4. “Day” (“Qish”) − 70 bayt.

Sharq mumtoz she’riyatida qasidaning maqomi yuksak bo‘lib, u shoir salohiyatini ko‘rsatuvchi muhim mezon bo‘lgan. Xoqoniy, Anvariy, Farruxiy, Sakkokiy kabi qasidanavislarning shuhrati asrlar bo‘ylab kelgani bejiz emas. Qasida faqat shoh-u amaldorlarga madh-u sano o‘qishdan iboratgina bo‘lib qolmay, falsafiy-irfoniy, axloqiy-ta’limiy mavzularda ham bu janrning nodir namunalari yaratilgan. Shuning u-n ham serqirra va sermahsul shoir Amir Xusrav Dehlaviy mening barcha asarlarim yer yuzidan yo‘qolib ketsa-yu, birgina “Daryoyi abror” (“Yaxshilar daryosi”) nomli qasidam saqlanib qolsa, shuning o‘ziyoq mening she’riyatdagi salohiyatim nechog‘liq baland ekanini namoyon etishga kifoya qiladi, deb lutf etgan. N.ning mazkur qasidalari ham uning forsiy tilda qanchalik yoza olish qudratining yorqin namunasi hisoblanadi. Xususan, teran tafakkur va nozik taxayyulga boy “Tuhfat ul-afkor”da N. barcha zamondoshlarining yakdillik b-n e’tirof etishlaricha, so‘z va ma’noning dodini berib, fasohatni haddi a’losiga yetkazgan bo‘lib, bu qasida uning shoirlik iste’dodining yuksak cho‘qqilaridan biri hisoblanadi. 1485-y. yozilgan “M.” asari muammo nazariyasi haqida bo‘lib, unda muammoning turli uslub va amallari sodda va tushunarli bayon qilib berilganligi sababli keng shuhrat qozongan. A. Jomiy o‘g‘li Ziyovuddin Yusufga uni darslik sifatida tavsiya etadi.

N.ning forsiy merosi A.Jomiy, A.Hotifiy, K.Binoiy, D.Samarqandiy, G‘.Xondamir, F.Hiraviy, A.Sheroziy kabi mashhur zamondoshlari tomonidan yuksak baholangan. Shoirning o‘zi “ko‘p turlik dilkash adolar va dilpazir ma’nolar voqe’”ligi jihatidan forsiy asarlari ham mashhur bo‘lib, zamondoshlari ularni sevib o‘qishlarini aytib o‘tadi. A.Jomiy “Haft avrang” xotimasida N.ning iste’dodi va mahoratiga yuksak baho berib, u Nizomiy Ganjaviy va Amir Xusrav Dehlaviy panjasiga munosib panja ura oldi, hatto ulardan ham o‘zib ketdi. Yaxshiyamki, u asarlarini turkiyda yaratdi, agarda forsiyda qalam tebratganida bormi, boshqalarda bu maydonda javlon urish u-n majol qolmas edi, deb yozadi:

Ki gar budi on ham ba lafzi dari,
Namondi majoli suxangustari.

Ba mizoni on nazmi mo‘jiznizom
Nizomiy ki budi-yu, Xusrav kadom?

Darhaqiqat, agarda N. o‘zbek tilida asarlar yaratishga sarflagan kuchini fors-tojikchada asarlar yaratishga sarflasa, forsiy adabiyotning eng mashhur shoirlaridan biriga aylanishi shubhasiz edi. Holbuki, u fors-tojik tilidagi mavjud merosi b-n ham forsiy adabiyotning Firdavsiy, Nizomiy, Sa’diy, Attor, Rumiy, Hofiz, Jomiy kabi zabardast namoyandalari b-n bir qatorda turadi.

N. ham o‘zigacha Sharq adabiyoti erishgan yutuqlarni o‘z ijodida umumlashtirgani u-n hammadan yuksak cho‘qqiga yetishdi. Jumladan, o‘zigacha yaratilgan barcha “Xamsa”larning yutuq va kamchiliklarini o‘rganib, o‘z dostonlari orqali ularning yutuqlarini rivojlantirib, kamchiliklarini bartaraf etganligi jihatidan N. “X.”si salaflariga shunchaki ergashish, ulardan ta’sirlanish, ular b-n ijodiy bellashish bo‘libgina qolmay, so‘z san’ati maydoniga “X.”ning takomillashgan yangi namunasini qo‘yish ham edi. Shuning u-n ham N. “X.”-si o‘zigacha yaratilgan “X.”lardan baland turadi. Jomiy, Davlatshoh, Xondamir va boshqalar bir ovozdan ayni haqiqatni e’tirof etganlar.

Ma’lumki, XV asrning ikkinchi yarmida Hirotda adabiyot, san’at, madaniyat, ilm-fan gullab-yashnadi. Bunda N.ning davlat arbobi, homiy va tashkilotchi, ustoz sifatida katta hissasi bor. U nafaqat Hirot va uning atrofidagi, balki boshqa mamlakatlardagi ko‘zga ko‘ringan kishilarni ham yoniga to‘pladi. Mirxond, Atoulloh Husayniy, Mavlono Fasihiddin, Husayn Voiz Koshifiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Davlatshoh Samarqandiy, Xondamir kabi olimlar, Mavlono Osafiy, Badriddin Hiloliy, Zayniddin Vosifiy, Abdulloh Hotifiy kabi shoirlar, Sultonali Mashhadiy, Abduljamil kabi kotiblar, Kamoliddin Behzod, Qosim Ali Chehrakusho, Shoh Muzaffar, Xoja Mirak Naqqosh, Mavlono Muhammad Isfahoniy kabi musavvir va naqqoshlar, Shoh Quli G‘ijjakiy, Abdulqodir Noiy, Husayn Udiy, Darvesh Ahmad Qonuniy kabi sozandalar, Abdulhay tabib, Mavlono Hakim, Darveshali tabib kabi tabiblar, Mavlono Kavkabiy, Xoja Avhad Mustavfiy, Muhammad Olim kabi munajjimlar va boshqa ko‘plab soha mutaxassislari bevosita N. homiyligida kun kechirib, ijod etganlar. Chunonchi, Sharq mumtoz poetikasining bilimdoni Atoulloh Husayniy o‘zi mudarrislik qiladigan “Ixlosiya” madrasasi yaqinidan bir hovli olmoqchi bo‘ladi. Uch ming dinor kepakiyga uyning bahosini ham kelishadilar. Lekin shu orada bir mansabdor undan ortiqcha pul taklif qilib, savdoni buzadi. Shunda kamxarjroq bo‘lgan olim yordam so‘rab, N.ning qoshiga keladi. N. u xaridor bo‘lgan hovlidan ham keng va katta, Hirotning go‘zal va xushhavo joyida bo‘lgan hashamatli uyni unga tuhfa qilib yuboradi. Yoki yetti jilddan iborat “Ravzat us-safo” nomli salmoqli tarixiy asarini yozishi u-n Mirxondga barcha shart-sharoitni muhayyo qilib beradi, ya’ni N. “Xalosiya” xonaqohidagi kattagina kutubxonasi bo‘lgan o‘z xonasini yozuv qurollari b-n jihozlab, zabardast muarrixga topshiradi.

Zamona fozillari tomonidan aksari fors tilida yozilgan 40 dan ortiq asarning N. nomiga bag‘ishlanishi ham uning o‘z davri siyosiy-ijtimoiy, adabiy-madaniy hayotida qanchalik katta rol o‘ynaganligini ko‘rsatib turibdi. Sadriddin Ayniy N.ga bag‘ishlangan tadqiqotida ulug‘ shoir tashabbusi b-n yaratilgan va unga bag‘ishlangan 46 ta asarni nomma-nom sanab ko‘rsatadi. Ular orasida Sayfiddin Ahmad Taftazoniyning “Sharhi faroiz” (“Shariat farzlari sharhi”), Husayn Voiz Koshifiyning “Tafsiri forsiy” (“Forscha tafsir”), Abdurahmon Jomiyning “Risolayi musiqiy” (“Musiqa haqida risola”), Mirxondning “Ravzat us-safo”, Atoulloh Husayniyning “Risolayi qofiya” (“Qofiya haqida risola”), Xondamirning “Maosir ul-muluk” (“Podshohlarning yaxshi fazilatlari”) va “Makorim ul-axloq” (“Yaxshi xulqlar”), Ahliy Sheroziyning “Qasidayi masnu” (“Nafis qasida”), Abdullo Hotifiyning “Layli va Majnun”, “Shirin va Xusrav” kabi mashhur asarlari bor. Birgina Jomiyning o‘zi N. iltimosi bo‘yicha yoki unga bag‘ishlab, 27 ta kitob yozgan. Bu haqda uning o‘zi ushbu asarlarning muqaddimasida ta’kidlab o‘tadi.

Ayon bo‘ladiki, Mirxondning “Ravzat us-safo”, Jomiyning “Nafahot ul-uns”, Atoulloh Husayniyning “Badoye-us-sanoye’” kabi fors-tojik adabiyoti xazinasini boyitgan, uning taraqqiyotiga xizmat qilgan va faxr-u iftixoriga aylangan ko‘plab asarlar bevosita N.ning maslahati, tavsiyasi, moddiy va ma’naviy madadi b-n yaratilgan. O‘zigacha o‘tgan mashhur so‘z ustalaridan mahorat sabog‘ini olib, ustozlari ta’sirida nafaqat ular muqobiliga qo‘yadigan, balki tafakkur teranligi va badiiyat yuksakligi jihatidan hatto ulardan o‘tib tushadigan betakror san’at durdonalarini ham yaratgan N. o‘z davri va o‘zidan keyingi nafaqat turkiy, balki forsiy adabiyotga ham kuchli ta’sir o‘tkazdi. Hatto A.Jomiy uning turkiy tildagi ayrim she’rlaridan ta’sirlanib, forsiyda ularga nazira yozganligi ma’lum. Davlatshoh Samarqandiy, Mavlono Osafiy, Kamoliddin Binoiy, Zayniddin Vosifiy, Badriddin Hiloliy, Abdulloh Hotifiy, Ahliy Sheroziy kabi zamondoshlaridan tortib keyingi asrlarda yashab ijod etgan barcha shoirlar ulug‘ shoirdan mahorat sabog‘ini oldilar, unga ergashib ikki tilda ijod qilib, zullisonaynlik an’anasini rivojlantirdilar. Bobur, Fuzuliy, Mashrab, Nodira, Amiriy, Ogahiy, Mujrim Obid,

Shavqiy Kattaqo‘rg‘oniy, Tolib Tolibiy, Mullaqurbon Joniy, Xiromiy, Vola, Noqis, Miriy, Dilshodi Barno, Mirzo Sodiq, Junaydullo Hoziq, Nozil Xo‘jandiy, Fano Istaravshaniy, Ma’dan, Muztar, Pari, Hasrat, Jazbiy, Faxriy Rumoniy, Maxmur, Gulxaniy, Asiriy, Hamza, Ayniy kabi ko‘plab zullisonayn shoirlar shular jumlasidandir. Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo‘qon, Xo‘jand adabiy muhitidagi shoirlar N.ni o‘zlariga ustoz, ijod yo‘lida rahnamo deb bilganlar. Ko‘rinadiki, N.gacha va uning davrida buyuk fors-tojik shoirlari ta’sirida o‘zbek ijodkorlari forsiyda ham qalam tebratgan bo‘lsalar, N.dan keyin uning ta’sirida fors-tojik shoirlari orasida turkigo‘ylar paydo bo‘ldi. Ular N.ning ko‘plab g‘azallariga tatabbu’lar yozganlar, muxammaslar bog‘laganlar. Bu shoirlarning ko‘pchiligi ikki tilda devon ham tuzganlar. Bu davrda tartib berilgan bayoz va majmualar ham ikki tildagi she’rlarni o‘z ichiga olgan. “Ayniqsa, XIX asrning birinchi yarmiga kelib, bu ikki adabiyot orasidagi aloqa shu darajada yuksak pog‘onaga ko‘tarildiki, ayrim shoirlar ijodini faqat bir adabiyot b-n bog‘lashning o‘zi yetarli bo‘lmay qoldi, – deb yozgan edi bu haqda ustoz adabiyotshunos Ergashali Shodiyev, – Ular o‘z asarlarini ikki tilda yaratganlar, ikki xalq madaniyati va adabiyoti taraqqiyotiga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shganlar, ikki xalq u-n bab-baravar xizmat qilganlar”. Shuning u-n ham ular haqli ravishda ikki adabiyotning namoyandalari hisoblanadilar.

Ma’lumki, N.ning “X.M.” nomli devonlar turkumi “Chor devon” (“To‘rt devon”) nomi b-n asrlar davomida maktab va madrasalarda o‘qitilgan. Forsiy adabiyot ijodkorlarining aksari turkiy tilni ham bilganligini inobatga olsak, demak, o‘z-o‘zidan, bo‘lajak fors-tojik ijodkorlari ham ulardan bahramand bo‘lganlar. Bu ham ularning shoir sifatida shakllanishlari va mahorat hosil qilishlari hamda N. ta’sirida ijod qilishlariga zamin yaratgan.

N. sermahsul va zabardast so‘z san’atkorigina bo‘lib qolmay, bilimdon, nozikta’b va talabchan adabiyotshunos olim ham edi. Sharq she’riyatining barcha janrlarida badiiy barkamol asarlar yaratgan ulkan shoir boshqalardan ham shuni talab qilar edi. N. tahsiniga sazovor bo‘lish o‘sha davr shoirlari u-n eng oliy mukofot hisoblangan. U 1491-y. “M.N.” tazkirasini yaratadi. Muqaddima va 8 bo‘limdan iborat bu asarda muallif o‘zidan oldin o‘tgan, bir davrda yashagan va adabiyotga endi kirib kelayotgan 459 nafar shoir (ulardan 39 tasi turkiy tilda ijod qilgan) haqida ma’lumot berib, ularning eng mashhur, eng yetuk she’rlaridan iqtiboslar keltiradi. N.ning qisqa va lo‘nda baholari u yoki bu shoir ijodining mohiyati va asosiy yo‘nalishlarini ochib beradi. Turkiyda qalam tebratganlar zullisonayn ham ekanligi, ya’ni fors-tojik tilida ham qalam tebratganligini hisobga olsak, mazkur tazkira orqali forsiyda ijod qilgan 459 shoir haqida ma’lumot va ular ijodidan namuna bizgacha yetib kelganki, ularning aksariyati haqidagi ma’lumotlar, asosan, “M.N.” orqali yetib kelganligi uning adabiy manba sifatidagi qimmatini yanada oshiradi. N.ning XV asr adabiy muhiti va uning namoyandalariga adabiyotshunos sifatida bergan bahosini o‘zida aks ettirgan, ayni paytda, janrlar taraqqiyoti haqida ham ma’lumot beruvchi mazkur tazkira haqida S.Ayniy o‘zbek tilida yaratilganligiga qaramay, XV asr tojik adabiyoti tarixining ham birlamchi manbayi hisoblanishini maxsus ta’kidlagan. Chunki N. o‘z tazkirasida davr adabiyotini yagona jarayon tarzida yoritib, uni o‘zbek va tojikka ajratmagan. Shuning u-n ham uning tazkirasi XVI asrning o‘zidayoq uch marta forsiyga o‘girilgan.

Ta’kidlash kerakki, “M.N.” o‘zidan keyin yaratilgan tazkiralarga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Uni “Latoyifnoma” nomi b-n fors tiliga o‘girgan Faxriy Hiraviy tarjimasiga 189 shoir haqida ma’lumot beruvchi 9 fasldan iborat o‘z tazkirasini ilova qiladi. Bundan tashqari, u shoh-shoirlarga bag‘ishlangan “Tazkirat us-salotin” va ayol shoiralar haqidagi “Javohir ul-ajoyib” kabi tazkiralar yaratadi. Shuningdek, Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob”, Som Mirzo Safaviyning “Tuhfayi Somiy”, Mutribiy Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro”, Maleho Samarqandiy-

ning “Muzakkir ul-as’hob”, Muhammad Nasafiyning “Mazhar ul-musannifin”, Rahmatulloh Vozehning “Tuhfat ul-ahbob”, noma’lum muallifning “Tazkirayi shoiron”, Sayyid Muhammad Siddiq Hasanxonning “Sham’i anjuman”, Fazliy Namangoniyning “Majmuat ush-shuaro”, Tabibiyning “Majmuat ut-shuaroyi Feruzshohiy” va boshqa tazkiralarda ham N. tazkirasining ijobiy ta’sirini ko‘ramiz. “M.N.” tazkirasida ko‘plab fors-tojik shoirlari haqida ma’lumot va ular ijodiga baho bergani, “M.Q.” pandnomasida forsiy adabiyot tarixida o‘zigacha o‘tgan barcha mashhur shoirlarni ijodining yo‘nalishiga ko‘ra tasnif etgani, Jomiy hayoti va ijodi haqida “Xam.M.” nomi b-n maxsus asar yaratgani, “N.M.” (“Muhabbat shabadalari”) tazkirasi, “X.” dostonlari va boshqa asarlarida Abulqosim Firdavsiy, Hakim Sanoiy, Nizomiy Ganjaviy, Sa’diy Sheroziy, Xusrav Dehlaviy, Hasan Dehlaviy, Farididdin Attor, Jaloliddin Rumiy, Faxriddin Iroqiy, Mahmud Shabustariy, Mavlono Ashraf, Xoju Kirmoniy, Kamol Xo‘jandiy, Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy singari zabardast fors-tojik qalamkashlari ijodiga munosabat bildirgani jihatidan N. fors-tojik adabiyotshunosligida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Zero, N. fikrlarini chetlab o‘tib, bu shoirlar ijodini yalpi va xolis baholab bo‘lmaydi. N. fors-tojik adabiyotining o‘zbek tarjimoni hamdir. A.Jomiy asarlari tarjimasini o‘z davrida aynan u boshlab bergan edi. Do‘sti va ustozining 1476–1478-yy. da o‘z da’vati b-n yozilgan shayx-u valiylar hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan “Nafahot ul-uns min hazarot ul-quds” tazkirasidan turkiy tilli o‘quvchilarni ham bahramand qilish maqsadida uni turkiylashtirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Tarjima jarayonida F.Attorning “Tazkirat ul-avliyo”sidan “Nafahot ul-uns”da bo‘lmagan 19 ta “kibor mashoyix” zikrini qo‘shadi. Yana “Hind mashoyixi” haqidagi ma’lumotlar yetarli bo‘lmaganligi u-n qutb ul-avliyo Shayx Farid Shakarganjdan tortib, to so‘nggi mashoyixgacha bo‘lgan 40 dan ortiq tarjimayi holni ilova qiladi. A.Yassaviydan to o‘zining zamonigacha bo‘lgan turk mashoyixi “zikrlarin va ba’zi holot-u so‘zlarin” imkon boricha topib, darj etadi. Jomiyning o‘zini ham kiritadi, yuzga yaqin yetuk zamondoshlarini ham shunga loyiq topadi. Bugina emas. Asarni ancha-muncha tahrir qiladi, zamon ahlining uncha ehtiyoji bo‘lmagan 60 ta tarjimayi holni qisqartiradi, ba’zi o‘rinlarni esa to‘ldiradi, 214 ta shayx hayoti haqidagi ma’lumotlarni qo‘shadi. Bu o‘zgarishlar natijasida “valoyat riyozi muhabbat shamimig‘a sabab” bo‘lgani u-n tarjimani “Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim ul-futuvvat” (“Ulug‘lik xushbo‘yliklarini taratuvchi muhabbat shabbodalari”) nomi b-n ziynatlaydi. Shu tariqa, “Nafahot ul-uns”da 616 ta shayx ul-mashoyix haqida ma’lumot berilgan bo‘lsa, “N.M.”da ular soni 770 taga yetadi. Shuningdek, u Jomiyning odob-axloqqa oid qirq hadisning nazmiy talqinidan iborat “Chihil hadis” asarini ham ustozining roziligi b-n “A.” nomi b-n ijodiy tarjima qiladi. Ma’lum bo‘ladiki, N.ning fors-tojik adabiyoti oldidagi xizmatlari beqiyos. Uning forsiy merosi bo‘yicha A.Fitrat, S.Ayniy, H.Sulaymon, A.Mirzoyev, Sh.Shomuhamedov, E.Shodiyev, Y.Is’hoqov, S.Erkinov, B.Valixo‘jayev, R.Orzibekov, A.Abdullayev, N.Komilov, A.Abduqodirov, A.Shomuhamedov, I.Haqqulov, S.Rafiddinov, E.Ochilov, K.Mullaxo‘jayeva, N.Bekova, D.Yusupova kabi olimlar u yoki bu darajada tadqiqot olib borgan bo‘lishlariga qaramay, bu muazzam meros hali yaxlit holda o‘rganilib, bir butun baho berilmagan. Natijada, A.Fitrat ta’biri b-n aytganda, “fors adabiyotining e’tiborli kishilaridan” bo‘lgan ulug‘ shoirning forsiy adabiyot taraqqiyotidagi o‘rni hanuz tayin etilmay kelyapti.

Shu o‘rinda bir narsani afsus b-n qayd etishimiz kerakki, N.ning forsiy merosini tushunmasdan yoki tushunishni istamasdan ba’zi xorijlik olimlar uning ijodiga noto‘g‘ri va noxolis baho berganlar. 1856-y.da M.Nikitskiyning “Эмиръ Низам-Эд-Динъ-Али Ширъ. Государственном и литературном его значении” (“Amir Nizomiddin Alisher: davlat arbobi va shoir sifatida”) nomli shoir ijodiga bag‘ishlangan ilk magistrlik dissertatsiyasi vujudga keladi. M.Nikitskiy N.

ning hayoti va faoliyatini ancha to‘liq o‘rgangani, uning shoir, olim va davlat arbobi sifatidagi faoliyatiga yuqori baho bergani holda Sharq mumtoz adabiyotidagi ijodiy an’analarni anglab yetmagani u-n N.ni “fors-tojik adabiyotining tarjimoni” deb e’lon qiladi.

Aynan shu tarzdagi g‘ayriilmiy qarashlar fransuz sharqshunoslari M.Belen (“Alisher Navoiy”, 1868), E.Bloshe “Milliy kutubxonada saqlanayotgan turkiy qo‘lyozmalar katalogi”, L.Buva (“Temuriylar davri sivilizatsiyasidan lavhalar”, 1926; “Mo‘g‘ul imperiyasi”, 1927), ingliz sharqshunosi E.Braun (“Tatar xonliklari davridagi fors adabiyoti tarixi”, 1920), rus sharqshunosi V.Bartoldlarning tadqiqot va ilmiy maqolalarida davom ettirildi. Xususan, V.Bartold o‘zining “Мир-Али-Шир и политическая жизнь” (“Mir Alisher va siyosiy hayot”) maqolasida N.ning davlat arbobi sifatidagi faoliyatiga ijobiy baho beradi, lekin uning adabiy merosi mohiyatini anglab yetmaydi. Olim mazkur maqolada: “Alisher Navoiy o‘zining devonlarida va boshqa ko‘plab badiiy asarlarida faqatgina forsiy shoirlarning taqlidchisi sifatida namoyon bo‘ladi”, – deb yozar ekan, masalaga adabiyotshunos emas, balki missioner bir tarixchi nigohi b-n noto‘g‘ri baho beradi. Aslida esa Musulmon Sharqida ijodkorning salohiyati G‘arb adabiyotidagidan farqli ravishda yangi syujet yaratishiga qarab emas, balki an’anaviy voqelik, mavzu, qahramonlar doirasida yangi fikr ayta olish iqtidoriga qarab belgilangan. Aynan mana shu an’anaviylikni anglay olmaslik yuqoridagi olimlarning N. ijodiga noxolis baho berishlariga olib kelgan.

Nihoyat, sharqshunos olim Y.E.Bertels “Alisher Navoiy va Farididdin Attor” dostonlarini qiyosiy o‘rganish orqali (“Навои и Аттар”) hazrat N.ning original shoir, yuksak iqtidor egasi bo‘lgan shoir ekanligini isbotlaydi. Shu tariqa ulug‘ mutafakkir ijodini xorijda keng ilmiy aspektda xolis o‘rganish ishlari boshlab yuboriladi.

Nemis olimi A.Kurellaning “Buyuk shoirning qayta kashf qilinishi” nomli tadqiqoti G‘arb n.shunosligida yangi bosqichni boshlab berdi. Ushbu tadqiqotdan so‘ng G‘arbda N. shaxsiyati endi ikki yo‘nalishda: ham buyuk ijodkor, ham davlat arbobi sifatida tadqiq qilina boshlandi. Inglizzabon olimlardan M.Sabtelni, V.Feldmen, D.Genchturk, D.Devin, K.Adaxl, G.Dikning ilmiy izlanishlari va tarjima borasidagi faoliyatlari, Berlin shahrida N. ijodiga bag‘ishlangan simpoziumning tashkil qilinishi va unda n.shunos olimlar va shoir asarlari tarjimonlari B.Haynkele, K.Shuning, Y.Paul, M.Kirhner, Z.Klaynmihel, E.Taube va boshqalarning turli mavzulardagi ma’ruzalari g‘arb n.shunosligining tobora rivojlanib borayotganligidan dalolatdir . Bularning barchasi bugungi globallashuv jarayonida N. ijodi va shaxsiga butun dunyoda qiziqish va ehtiyojning ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Xullas, N.ning forsiy adabiyotga munosabati qardosh xalqlar adabiy an’analarini favqulodda mohirlik b-n o‘zlashtirishi jihatidan ham, zullisonaynlik imkoniyatlarini oliy darajada amalda ko‘rsatish nuqtayi nazaridan ham alohida diqqat-e’tiborga loyiqdir.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар бўстони. – Т., 1981; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 2002; Абдурауф Фитрат. Навоийнинг форсий шоирлиғи ҳам унинг форсий девони тўғрисида. Танланган асарлар. 2-жилд. – Т., 2000; Айний С. Алишер Навоий ва тожик адабиёти // Улуғ ўзбек шоири (Мақолалар тўплами). – Т., 1948; Мирзоев А. Фоний ва Ҳофиз // Навоий ва адабий таъсир масалалари (Мақолалар тўплами). – Т., 1968; Орзибеков Р., Комилов Н. Форс-тожик адабиётида Навоийга издошлик тарихидан. Навоий ва адабий таъсир масалалари. – Т., 1968; Шодиев Э. Алишер Навоий ва форс-тожик адиблари. – Т., 1973; Шодиев. Э. “Девони Фоний” нашрлари // Ўзбек тили ва адабиёти. 1988; Рамазонов Н. “Насойим”нинг ўзига хос хусусиятларига*

доир // Навоийнинг ижод олами. – Т., 2001; Бекова Н. Амир Низомиддин Алишер Навоий – Фоний. Девони Форсий. – Душанбе, 2021; Сирожиддинов Ш., Юсупова Д., Давлатов О. Навоийшуносник. – Т., 2018.

S.R.

NAVOIY VA SHATRANJ Buyuk mutafakkir N. serqirra iste'dod sohibi sifatida shatranj (shaxmat)ni ham mahorat b-n o'ynagan. Bu qadimiy o'yinning nazariy jihatlari, usullarini yaxshi bilgan. Fikrimiz isboti u-n tarixchi Xondamir "Makorim ul-axloq"da yozgan hikoyaga murojaat qilamiz: "Bir kuni maqtovga munosib Amir N. fikrini kengaytirish u-n Mavlono Fasihiddin Sohibdoro b-n shatranj o'ynamoqda edi. Shu paytda Burhonuddin Atoulloh majlisga kirib keldi. Ul hazrat izzat-u hurmat marosimlarini bajo keltirib, iltifot va ko'ngil so'rash yo'li b-n "qayerdan tashrif buyurdilar va qanday xizmatlari bor?", deb so'radi. Amir Burhonuddin javob berdi:

– Har kuni shahardan madrasai Ixlosiyaga qatnashdan qutulish u-n ko'p vaqtlardan beri uning atrofidan bir hovli olish maqsadida edim. Hozir shunaqa joy topdim va uni 3.000 dinor kepakiyga sotib olmoqchiman. Biroq bu orada bir mansabdor paydo bo'lib, bu mablag' ustiga bir oz pul qo'shib turibdi. Sotuvchi bo'lsa, joyini unga sotmoqchi. Umid shulkim, mulozimlaringiz u kishiga mazkur hovlini sotib olish ishtiyoqidan voz kechish va uni menga qoldirishi to'g'risida, shafqat yuzasidan, bir qog'oz yozib bersalar.

Daryoko'ngilli Amir bu so'zlarga javob qilmay o'rtadagi shatranj mashg'ulotini tugatishda davom etdi. Shu tufayli ul janob Burhonuddin Atoulloh tashvishga tushib, "bu iltimosim oliy hazratning ko'ngliga og'ir botdi", deb gumon qildi. Har holda, shatranj o'yini tamom bo'ldi. Ehson-u saxovat manbayi bo'lmish Amir N. ul zotga xitob qilib "agar faqirlardan bir sahni keng, imorati ko'p, xush havo va suvi shirin hamda madrasaga yaqin biron hovlini sizga tortiq qilsa, munosibroq bo'ladimi yoki o'sha o'zingiz aytgan hovlini qo'lingizga kirishi u-n harakat qilinsinmi?" dedi. Ulug' nasabli janob bu so'zlarni eshitib, shodlik va xursandchilik izhor qilib, umidvor bo'ldi.

O'sha vaqtlarda baland martabali Mavlono Muhammad Mu'inning hovlisi ul hazrat N. devoniga taalluqdor edi. Haqiqatan ham, u joy ko'ngilochar va xushhavo bir joy edi. Mana shu joyni ul janobga in'om qilib, murodini hosil qilib jo'natdi..."

N.ning turli mavzuda yozgan lirik va nasriy asarlarida keltirilgan shatranjga oid masalalar, shatranj muhralari b-n bog'liq misollar ana shundan dalolat beradi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, shatranjbozlik an'analari o'z tarixiga ega bo'lib, ayniqsa, Sohibqiron Amir Temur va temuriylar davrida bu sport turi yaxshi rivojlangan. Saroyda va yuksak doiralarda bu o'yinni o'ynash urf bo'lgan. Tarixiy manbalarda yozilishicha, Amir Temur ham bu sport turining mohir ustasi bo'lgan. U shatranjning bilimdonlarini saroyga taklif etgan. Bu haqda tarixchilar, xususan, Ibn Arabshoh ma'lumot yozgan. Sohibqiron shatranjning kichik shatranj va katta (oliy) shatranj o'yinlarida o'ynagan. Amir Temur Uyg'onish davridagi shatranj an'analari N. va temuriy hukmdor Husayn Boyqaro davrida ham davom ettirilgan. Temuriylar davlat boshqaruvida bo'lgan Xurosonda, ayniqsa, Hirotda badiiy adabiyot, san'at va madaniyatning ko'pgina sohalari qatori bir qancha sport turlari, xususan, kurash va shatranj ravnaq topgan.

N. shatranj haqida "M.N."da alohida to'xtalgan. U bergan ma'lumotlarga ko'ra, o'z davrining ayrim davlat mulozimlari, shoir, adiblari nafaqat ijodda, balki shatranj sport turi bo'yicha ham mahoratli bo'lishgan. N. tazkirada Mir Murtoz, Mavlono Sohib, Mavlono Muhammad Tolibni taniqli shatranjchi sifatida tilga olgan. Ularning shatranj b-n muntazam shug'ullanishi, o'yin usuli xususida ham gapirgan. Mavlono Sohibni yaxshi ta'bli shoir bo'lishi b-n birga uning "G'oyibona shatranjni xo'b o'ynar va tab'ida junun choshnisi bor" deb yozgan bo'lsa, Mavlono Muhammad Tolib haqidagi fiqrada esa uning muammo janridagi mahorati va shatranjga qizi-

qishi b-n bog‘liq shunday xabar bitgan: “Mavlono Muhammad Tolib tolibi ilmlig‘i ham bor va shatranjg‘a ajab mash’ufdur va muammog‘a ham ko‘proq mashg‘ul bo‘lur”. Yoki N.ning yozishicha, Mir Mirtoz degan shatranjchi aqlni peshlovchi bu o‘yinga shu darajada o‘ch ekanki, bir raqibi b-n o‘ynayotganda ikkinchisi ketib qolmasin, deb uning etagidan tutib o‘tirar ekan. O‘qiymiz: “Shatranjga andoq mag‘lubdurkim, bir harif iligida tushsa, xalos bo‘la olmas. Bu jihatdin hariflar andin qocharlar”.

Yana bir mohir shatranjchi Kamoliddin Binoiy bo‘lgan. N.ning shatranjdagi raqiblaridan biri bo‘lgan. N. lirikasida shatranj va uning muhralari b-n bog‘liq timsollar, sifatlash, o‘xshatish va maroqli tasvirlar uchraydi. “G‘.S.” devonida N. shunday bayt yozgan:

Shah yonin farzin kibi kajlar maqom etmish,
ne tong,
Rostravlar arsadin gar tutsalar ruhdek qiroq.

Maz: Shohning yonida farzin kabi egri yo‘lga yuruvchilar turar ekan, Ruhdek to‘g‘ri yuruvchilar hamisha taxtaning chetida qolsa, ajab emas.

Yana “G‘.S.”dan o‘rin olgan qit’aga murojaat qilsak:

Bu yurishda iki ulog‘im bor,
Lek bormen sipohiylikda yayoq.

Iki shatranj otidek birisi
Ko‘tara olmay o‘z yeridan ayoq.

Chopsa shatranj xonasi xatidin,
Sekrimaklik alarg‘a behad shoq.

Biri rangi qarodurur, biri bo‘z,
Qaro yerdir dog‘i-yu bo‘z tufroq.

Bu qit’adan anglashiladiki, N. yurishlardan birida shohga hamrohlik qilgan, ammo unga safar u-n berilgan bir bo‘z va biri qora ot ko‘ngildagidek bo‘lmagan. N. poetik tarzda bu voqeani mutoyiba qilgan hamda otlarni shatranj muhralariga qiyoslagan. N.ning ko‘pgina asarlarida shatranj b-n bog‘liq manzaralar, hikoyatlar uchraydi. “S.I.” dostonidagi bir lirik lavhaga murojaat qilsak. Unda bolaning shaxmat muhralari b-n o‘ynashi, lekin muhralarni to‘g‘ri tera olmasligi, piyodani shoh o‘rniga, filni esa ruh “ayvon”iga terishi, to‘g‘ri yurish va muhralarni olishni ham bilmasligi, ammo ermak u-n turli sho‘xliklar qilishi tasvirlangan:

Aningdekki, tifl istabon inbisot,
Chu shatranj o‘ynarg‘a yoysa bisot.

Ne o‘ynorini bilsa, ne termagin,
Ne olmog‘ini bilsa, ne bermagin.

Olib qo‘ysa baydaqni shah yonida,
Yana pil qo‘ysa rux ayvonida.

N. “L.T.” dostonida ham shatranjning falsafiy mohiyatini ochib beradigan ajoyib bir hikoyat bitgan:

Iki shatranj o‘ynog‘uchi ustod,
Arsayi shatranjg‘a aylab kushod.

Ikki jonibdin bo‘lib oromgir,
Tuttilar o‘rtada shatranji kabir.

Har tarafdin bir shah o‘ldi oshkor,
Borcha oyin-u sirohi shohvor...

Hikoyat syujetida shoir shatranj o‘yinini haqiqiy jangga qiyoslaydi. Ikki raqib shoh o‘zining sipohi piyodalarini hayot-mamot jangiga tashlaydi. Yuqoridagilardan anglashiladiki, shatranj N. hayotida alohida o‘rin tutgan, u shoirning dam olish vaqtlarini maroqli o‘tkazish vositasigina bo‘lib qolmay, balki uning falsafiy mushohadalarini chuqurlashtirishga ham xizmat qilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 2002; Муҳаммад Н. Навоий ва шатранж // Ёшлик. 2016. 1-сон. (https: // saviya.uz).*

B.R.

NAVOIY VA QOZOQ ADABIYOTI N. ning ko‘p qirrali ijodiy faoliyati qardosh qozoq diyorida ham keng tanilib, alohida e’zozlangan. N. asarlarini qunt b-n sevib o‘qib, ulardan ko‘p narsa o‘rgangan, ijod chashmalaridan bahra olib, ijodiy ta’sirlangan ulug‘ qozoq ma’rifatparvar shoiri va mutafakkiri Abay Qo‘nonboyevdir. Abay asarlari tadqiq etilganda, N. nazmi, eposiga ijodiy yondoshib, bir qancha mukammal lirik she’rlar, ajoyib dostonlar yaratganining shohidi bo‘lamiz. Binobarin. N. va Abay ijodini o‘zaro taqqoslab, qiyoslab fikr yuritish o‘zbek, qozoq adabiy aloqalarining muhim va yorqin sahifalarini tashkil etadi. (Q.: ABAY) Qozog‘iston FAning muxbir a’zosi, f.f.d-ri., prof. Esmagambet Ismaylovning bergan ma’lumotiga ko‘ra, N.ning “S.I.” dostoni haqida qozoq xalqi orasida bir qancha qiziqarli afsona, hikoya va ertaklar mavjud. M-n, 1905-y. N.Sarkin tomonidan e’lon qilingan “Aleksandr Makedonskiy haqidagi qirg‘iz she’rlari”, Duvlat Jirov Bobotay o‘g‘lining “Aleksandr Makedonskiy” dostoni, shuningdek, “Hazrati Zulqarnayn”, “Iskandar Zulqarnayn”, “Hazrati Zulqarnayn hikmatlari” va Yusufbek Shayxislamovning “Iskandarning shoxi bor” kabi afsona, ertak va dostonlari shular jumlasidandir.

“Layli va Majnun mozori”, “Layli va Arist” haqidagi ertak va afsonalar b-n “Qissayi Bahrom” kabi dostonlarning ham qozoqcha xalq variantlari mavjud bo‘lib, ular 1901–1908-yy. Qozon shahrida nashr etiladi. Shuningdek, qozoqlar orasida keng tarqalgan “Bahrom Go‘r bilan Fitna” kabi afsonalar ham bo‘lgan.

N.Sarkin tomonidan yozib olingan Duvlat Jirovning “Sartarosh yoki Iskandarning shoxi bor” dostoni, “Sulaymon bilan dehqon”, “Shoh Samarqand” kabi ertaklar qozoq xalqi orasida keng tarqalgan. 1924-y. olim Abubakir Divayev tomonidan Toshkentda qozoq tilida chop etilgan “Tortuv” nomli to‘plamdagi “Yangi mezonlar”, “Uch yalang‘och”, “Yaxshi xotin yomon erni tuzaydi” nomli ertaklarning, shuningdek, “Qozoq xalq ertaklari” nomli kitobning II tomiga kiritilgan Sulton Husayn va uning vaziri Mir Alisher haqidagi “Podsho qiz bilan qora qul” ertagi ham diqqatga sazovordir.

Bu ertak ko‘p jihatidan qozoq xalq ertagi “Ayaz big” ertagiga yaqindir. Unda N., ya’ni Mir Alisher Sultonshin degan podshoning vaziri sifatida gavdalanib, rahmdil, xalqparvar, adolatli shaxs o‘laroq namoyon bo‘ladi. Toshkentda tahsil olib, Turkiston va So‘zog‘da yashab, barakali ijod etgan Shodi Jongirov (1865–1933) arab, fors, eski o‘zbek tilini, o‘zbek adabiyoti va madaniyatini ancha mukammal o‘rganib, uni o‘z xalqi orasida nasihat uslubida keng yoygan ijodkorlardandir. U Firdavsiy, Nizomiy va N. asarlari syujetidan foydalanib, ulardan ma’naviy ozuqa oladi. Sharq klassiklari asarlariga nazira bog‘lab, o‘zi ham bir qancha qissa va dostonlar yaratadi. Bu borada ijodkorning “Qirq vazir qissasi” (1911), “Hotamtoyning hikoyasi” (1914), “Nozim va Sharif”, “Xalifa Xorun ar-Rashid hikoyati” (1917), “Iskandar Zulqarnayn”, “Bahrom Go‘r”, “To‘rt darvish” kabi asarlarini eslash kifoyadir. U mazkur asarlarni Toshkent, Qozon va Orenburg kabi shaharlarda chop ettirgan. Uning “Chor darvish”, “Hikoyati O‘rqa-Kulshe” dostonlari N.ga naziralardir. Bu asarlarida N. ilgari surgan adolat, vafo, sadoqat, do‘stlik, hamdamlik g‘oyalari o‘z ifodasini topgan. Buxorodagi Mir Arab, Ko‘kaldosh madrasasida o‘qib, Sadriddin Ayniy b-n birgalikda tahsil olgan Turmag‘ambet Iztileuov (1888–1939) ham Sharq shoirlariga, xususan, N. asarlariga nazira bog‘lab, “Doraynoma”, “Iskandar”, “Semurg‘” singari asarlar yozdi. Qozoq oqinlaridan biri – Maylixo‘ja Sultonxo‘ja o‘g‘li (1835–1898) o‘zining “To‘lg‘ov” nomli she’rida:

O‘zbekdan o‘tgan Navoiy,
Tilning gavhar guli edi.
Forsidan o‘tgan Firdavsiy,
Zamonida dur edi,

deya ulug‘ mutafakkir N. b-n Firdavsiyning poetik mahoratiga yuksak baho beradi. Shuningdek, shoir mazkur fikrlarini o‘zining “Termalar” nomli she’rida ham alohida qayd etib, har ikkala xalqparvar shoirning umri boqiyligini hurmat b-n tilga oladi. Ayni tasvirlar Kenjexo‘ja Qulmirzayevning “Oqinlar” nomli she’rida ham kuzatiladi:

Azalgi shoir Firdasviy,
Avlodga nazm tashlagan.
Navoiy bilan Fuzuliy,
Hammadan ilg‘or, peshqadam.

Qozoq shoirlari N. yaratgan qissa va dostonlarning bosh qahramonlarini asarlarida qaytaqayta tilga olib, ularni samimiy sevgining, asl muhabbatning ramzi o‘laroq qayd etadi. M-n, Musobek Boyzoqov (1849–1932) “Sirim qizga” nomli she’rida shunday yozadi:

Ko‘rmakka Sirim seni oshiq bo‘ldim,
Ilgari o‘tib ketgan Layli-Majnunday.

Yoki hassos shoir Harip Tangirbergenovning (1656–1924) “Soraga” nomli she’rida N. qahramonlari iztiroblariga hamdardlik seziladi:

Ayniqsa, azob chekkan Layli-Majnun,
Qidirib oxirida arang topgan.
Ziyada, Xo‘rli, G‘ayin, Farhod-Shirin,
Shu kunda xabarim bor o‘shalardan.

Iqtidorli qozoq shoiri Sultonmahmud To‘rayg‘irov “Adashgan hayot” nomli poemasini yozishda N.ning “X.M.” devonidan ta’sirlanadi. N. umrni yilning to‘rt fasliga qiyoslab, “Yoshlik”, “Yigitlik”, “O‘rta yoshlik” va “Keksalik” deb ataydi. S.To‘rayg‘irov ham poemasini o‘z umriga bog‘lab, “Men bola”, “Men yigit”, “Men to‘xtadim”, “Men keksa” kabi qismlarga bo‘ladi. Yoki N. “B.B.” debochasida:

Ko‘nglumda ne ma’ni o‘lsa erdi paydo,
Til aylar edi nazm libosida ado.
Ul nazmga jonni qilibon xalq fido,
Solurlar edi gunbazi gardung‘a sado,

desa, S.To‘rag‘irov ham poemaning boshlanmasida:

So‘zlarim axir bir kun bo‘lar oshkor,
Saqlashga uni maxfiy qanday kuch bor?
Birov – kuy, birov – imo, birov – so‘z-la,
Sezdirar yurak sirin bo‘lib xushtor,

deb yozadi.

Ayon bo‘ladiki, qozoq xalqi va uning oqin, jirovlari, shoirlari N. asarlarini sevib o‘qib, uni o‘zlariga ustoz sifatida tanib, g‘oyat ardoqlaganlar.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; XX ғасыр басында-ы қазақ ақындарынын шығармалары. – Алматы, 1963; Мусрепов Г. Суреткер парызы. – Алматы, 1970; Валихонов Ч. Собрание сочениний в пяти томах. 2 том. – Алматы, 1962; Торайғыров С. Шығармалар. 1 том. – Алматы, 1967.*

Q.S., S.O‘.

NAVOIY VA G‘AFUR G‘ULOM O‘zbekistonda n.shunoslik fanining yaratilishida akad. G‘.G‘ulom O.Sharafiddinov, Oybek, Sadriddin Ayniy, Y.E.Bertels kabi ustozlar b-n baravar turib xizmat qilgan. G‘.G‘ulomning N. dahosiga qiziqishi va ularni ijodiy tarzda o‘qib-o‘rganish tarixi o‘ziga xosdir. Donishmand shoir o‘z e’tirofiga ko‘ra, hali beshikda ekan, onasi uni Hofiz, Jomiy, N. asarlari b-n allalagan. N. tavalludining 500 yilligini nishonlashga hozirlik jarayonida shoir asarlari nashrga tayyorlangan. Ana shu jarayonda G‘.G‘ulom “F.Sh.”ning 4 qo‘lyozma nusxasini aniqlaydi.

Dostonni 1940-y. Toshkentda nashr ettiradi. Uning bu yo‘nalishdagi xizmati shu b-n yakunlanmadi, balki doston ustida ishlab, uni hozirgi o‘zbek adabiy tiliga tabdil qildi. “Navoiy va zamonamiz” (1948), “Sharq nazmi osmonining ikki porloq quyoshi” (1964), “Xoki Musallo”, “Taxti safar”, “Buyuk ustoz” (1966) singari maqolalarida n.shunoslikka oid masalalarning har taraflama asoslangan yechimlarini bayon etdi. Jumladan, G‘.G‘ulom “Sharq nazmi osmonining ikki porloq quyoshi” nomli maqolasida A.Jomiyning N.ga ijobiy ma’nodagi ta’sirini ta’kidlab o‘tadi. N.ning “Xam.M.”, “M.L.” asarlaridan ba’zi lavhalarni, shuningdek, “X.M.” to‘plamining hozir biz o‘qib turgandek nom olishini yoxud Jomiyning o‘z g‘azallarini uch devonga ajratib, “Fotihat ul-shabob”, “Vositat ul-uhd”, “Xotima ul-hayot” deb atalishida ustoz-shogird bir-birlarining maslahati b-n ish tutganini misollar b-n dalillaydi. G‘.G‘ulom ulug‘ mutafakkirning eng kichik janrlardan tortib, yirik eposlari qatiga singgan ilm olishga targ‘ib, da’vat, ulug‘lash, olimlarni e’zozlash, ilm olish zarurati va afzalliklari kabi fikrlarining umumbashariy ahamiyatini alohida urg‘-ulaydi: “... bir ilm b-n qanoatlanib qolmaslik, barcha dunyoviy va diniy ilmlar b-n qurollanmoqlik hammaga lozim ekani targ‘ib qilinadi. Ayniqsa, shohlar va shahzodalar olim bo‘lmoqlari, hamma ilmdan bahramand bo‘lmoqlari lozim, deydi Navoiy, shundagina ular adolatli bo‘ladilar. Xalq tinch, mamlakat obod bo‘ladi”. Shoir 1948-y. yozgan “Alisher” nomli she’rida N.ni butun bashar farzandi, favqulodda iste’-dod egasi va vafo kuychisi o‘laroq ta’riflaydi:

To‘fon, quyunlarda yakka-yu yolg‘iz,
Monolit, granit haykalday mag‘rur,

Temurbek davlatin so‘nggi chog‘ida
Sarkash-u barhayot, bo‘ysunmas shuur –

Daraxshon yulduzlar sari o‘kirgan,
Bo‘ynida zanjir-u, qalbi ozod sher.

Insoniy muhabbat mehri-lavafo,
Erk-u baxt timsoli ulug‘ Alisher.

Shoir “Monolit, granit haykalday mag‘rur” deya N.ning davr va muhit zarbalariga dosh berib, o‘zidan so‘nmas adabiy meros qoldirganini juda yorqin va o‘ziga xos tarzda ifoda etadi. N. chizgan “Zanjirband she’r” rasmida uning taqdiri aks ettirilgani hamda butun umrini inson himoyasiga bag‘ishlaganini talmeh san’ati orqali bayon qiladi.

1964-y. dekabr oyida Abdurahmon Jomiyning 554-yilligi tantanalari munosabati b-n Hirotda bo‘lgan G‘.G‘ulom “Alisher Navoiy qabri ustida” nomli she’r yozadi. N. b-n ruhan suhbatlashib, unga holdoshligini aruz ohanglarida bitadi:

Dilim ravshanligini hissim yo‘lida
oftob aylab,
Mozoring boshida turmakdadurmen
sarhisob aylab,
Qulog‘ing so‘z eshitmas bo‘lsa ham,
qalbdan xitob aylab,
Vatandoshlar salomin necha jildli
bir kitob aylab,
Navoiy deb musalloga kelibmen
intixob aylab.

Mazkur she’r to‘rt qismdan tashkil topgan bo‘lib, shoir uni “sog‘inch” rukni ostida yozgan.

Ma’lumki, N.ning: “Din ofati bir mug‘bachayi moxdiqodur, mayxora-yu bebok” satrlari b-n boshlangan mustazodi o‘z davrida juda mashhur bo‘lib, yosh oshiqlarning, hozirgi ibora b-n aytganda, madhiyasiga aylangan, yoshlar bir yerga to‘plansa, bu she’rni baland ovoz b-n bir-biriga jo‘r bo‘lib, qo‘shiq qilib aytishgan. G‘.G‘ulom ham uning ta’sirida ushbu she’rni yozgan:

SamDU qopqasida bir qizni ko‘rdim,
Yetti rang tovlangan quyosh kabi pok.
Koshkiydi o‘ttiz yil orqaga qaytib,
Ishqimni aytsaydim, qilib yoqa chok.

Ko‘rinib turibdiki, shoir qalbiga N. mustazodi cho‘g‘day ta’sir etgan va undan o‘z tuyg‘ulari,

mubtalo oshiq holatini ifodalashda mohirlik b-n istifoda etgan. Bu muxammas tatabbu' yozish hamda tazmin etishning har qanday shoir o'rgansa arziydigan porloq namunasidir. G'.G'ulom N. ijodini o'qib, uqishda mohir edi. N.ning "Tun bila tong" radifli g'azaliga bog'langan muxammasi shu mahoratning bir ko'rinishidir. Muxammasda, avvalo, shoirning muxammas bog'lash u-n g'azal tanlashdagi sinchkovligi ko'zga tashlanib turadi. Ijodkor u-n birinchidan, N. fikrlariga uyg'un ravishda, ularni to'ldira, kuchaytira oluvchi fikrlar ayta bilish; ikkinchidan esa navoiyona badiiy tasviriy omillar b-n bu fikrlarni muzayyan etish vazifasi ham bor edi. N. matla'ni tazod san'ati asosida qurib, o'ziga xos go'zallik va latofat ila lirik qahramonning ayriliq kayfiyatini yor visolini tongga, o'zi firoqini esa tunga tashbeh etib o'ta ta'sirchan ifodalar yaratadi. Yana bu xil tun b-n tong dahrda yo'q, deya tasvirni kuchaytirgan. G'.G'ulom g'azalga muxammas bog'lar ekan, matla'dagi mazmunni emas, balki undagi san'atni ham yanada kamolot darajasiga ko'tarishga musharraf bo'ladi. U oshiqning "qarog'i" va yorning "kamoli", oshiqning "zavoli" va yorning "kamoli", oshiqning "kuyuk oyi" va yorning "hiloli" orasida zidlik – tazod orqali yuksak san'atkorlik mahoratini namoyon etadi:

Mening qarog'im-u oning jamoli tun bila tong,
Mening zavolim-u oning kamoli tun bila tong.
Mening quyuq mahim, oning hiloli tun bila tong,
Mening firoqim-u oning visoli tun bilan tong,
Bu nav' dahrda yo'q ehtimoli tun bila tong.

Shoir N. ifodalayotgan kayfiyatning doirasini kengaytirgan. Uning misralarida oshiqning qarog'i (ko'zi) yor jamoliga qiyos etiladi. Yor jamoli tong kabi go'zal. Bechora oshiqning ko'zi g'am b-n tun kabi qoraygan. Ishq azobini chekuvchi, ayriliq dardini tortuvchi oshiqning zavoli ham sevgili yorning kamoliga qarama-qarshidir. Nihoyat, tun va tongning doimiy hamrohi oy obrazi ham she'rda uchraydi. Ana shu tasvirlardan keyin N. bayon etgan hayotda ehtimoli bo'lmog'i qiyin tun b-n tong (ayriliq va visol birdamligi) to'g'risidagi so'z keladi. Natijada, misralar biribiriga uyg'un, hatto qo'shilib ketganday bo'ladi. Navbatdagi bandlarda ham G'.G'ulom qalamining muxammaschilikdagi san'atkorligi ravshan ko'rinib turadi:

Qilolmadim qaro tun, nurli tong zavolin kashf,
Nafas-nafas o'tayotgan umring uvolin kashf,
Siyoh haqqi, bu Mirzo, qog'oz jamolin kashf,
Navoiy etmadi zulf-u yuzing hayodin kashf,
Valek erur g'amining ittisoli tun bila tong.

Umuman olganda, G'.G'ulom ulug' o'zbek san'atkori N. ijodining zarif nuqtalarini bedilona nigoh b-n anglagan, o'z asarlarining mavzu va g'oyalariga, muayyan syujet nuqtalari va mazmuniga singdirib borgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамсат ул-мутаҳаййирин. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ғафур Ғулом. Мукаммал асарлар тўплами. 12 жилдлик, 1-12-жилдлар. – Т., 1983.; Қаюмов А. Алишер Навоий ва Ғафур Ғулом. Тўплам; Ҳайитметов А. Ғафур Ғулом ижодида ўзбек мумтоз адабиёти анъаналари. Тўплам. – Ғафур Ғулом ижодининг маънавий-маърифий аҳамияти. Илмий конференция маърузалари тезислари. Масъул муҳаррирлар: Н.Каримов., Т.Мирзаев. – Т., 2003; Муҳиддинов М. Навоий ва Ғафур Ғулом. https://uza.uz/posts/238171; Ўтанова С. Ғафур Ғулом – навоийшунос. Ғафур Ғулом ва замонамиз. Шоирнинг 100 йиллигига бағишланган мақолалар тўплами. – Гулистон, 2003; Rajabova B. "Navoiy deb Musalloga kelibmen..." – "Ma'rifat" gazetasi, 2023-y. 26-iyul.*

B.R., S.O'.

NAVOIY DASTXATI 1976-y. Tehronda ikki jildli "Fehrasti devonxoyi xattiy kitobxonayi saltanati" deb nomlangan katalog nashr qilinadi. Garchi bu katalog qo'lyozma devonlar

katalogi deyilgan esa-da, unda ko‘plab kulliyot va alohida dostonlar ham tavsif etiladi. Uning tuzuvchisi Badri Xonim Otaboy (Komro‘z) Eronda kutubxona mudirasi bo‘lgan. Katalog 1-jildning 78–92-sahifalarida N.ning ikki Kulliyoti (birining mundarijasi berilmagan, ikkinchisi 20 asarni o‘z ichiga oladi), bir dostonlari majmuasi – “X.” va “L.T.” (bu yerda “Bahromnoma” va “Iskandarnoma” deb nomlangan) va to‘rtta she’riy devonlari tavsifi berilgan. Shu devonlardan to‘rtinchi (inv. № 1799)si haqida quyidagilarni o‘qiymiz (forschadan tarjimasi):

Amir Alisher Navoiy devoni.

Formati 28x19.

Qog‘ozi – matnda ohar muhrali Buxoro qog‘ozi. Hoshiyada esa jadidi fistahi qog‘ozi.

Xati – nasta’liq, yozilishi tahririy.

Tili – turkiy.

Kotib ismi – Amir Alisher Navoiy.

Ta’rixi (yozilgan yili) – bitilmagan.

Izohlar – Devon “alif” harfidan “qof” harfigacha bo‘lgan g‘azallardan iborat. Bir she’rdan so‘ng bu nusxani ko‘chiruvchi N. deb tanishtirib yozadi:

Ziyo ul-haq v-ad-dunyovu v-ad-din
Berib ikkinchi devonimg‘a taz’yin.

Savod uzra savod ar qildi mastur,
Vale ma’nidadur nur ala nur.

Katabahu al-abd ul-faqir Alisher al-mashhur bin-Navoiy ... (ya’ni, haq, dunyo va dinning nuri ikkinchi devonimni bezadi. Garchi qoralama ustiga qoralama yozilgan esa-da, lekin ma’nosida nur ustiga nur bo‘ldi. Bituvchi banda va faqir Navoiy nomi b-n mashhur Alisherdur).

Qo‘lyozmaning shu yerida muhr bosilgan bo‘lib, muhrda “kun osha fid-dunyo k-al g‘arib ul-faqir Alisher” (ya’ni, “Dunyoda faqir va g‘arib Alisherdek hayot kechirgin” – degan so‘zlar o‘yilgan).

Demak, bu nusxa N.ning rasmiy ikkinchi devoni “Navodir un-nihoya”ning tugallanmagan muallif xati b-n yozilgan nusxasi – N. dastxatidir.

Qo‘lyozmada Nodirshoh Afshor (1736–1747) ning vaziri Mirzo Mahdixon Astrobodiy “Xat va sharafli muhr Hazrat Navoiynikidir” deb yozib, fikrini tasdiqlash u-n o‘z muhrini bosib qo‘ygan. Avvalgi sahifa orqasida qo‘lyozmaning keyingi tarixiga oid ma’lumotlar bor. Ularga ko‘ra, bu qo‘lyozma nusxa 1233-y. (1817). Faxridavla Qojar tomonidan o‘g‘liga tuhfa qilingan va muhr b-n tasdiqlangan. Yana bir muhr bosilgan bo‘lib, undan “Salom ba Alishoh Shahriyori Jalil” (Hazrati Sulton Muhammad Ismoilning vaziri) degan yozuv bor.

Bu nusxaning 1282 (1865–66) y.da hozirgi saqlanayotgan fondga olinganini tasdiqlovchi Nosiriddin shoh Qojar muhri ham bosilgan. Qo‘lyozmaning sahifalariga zarrin, qora va lojuvard rangli jadval tortilgan. Hoshiyalar va matn bezaksiz. Hoshiyada matndan tushib qolgan she’r yoxud baytlar yozilgan. Sahifalar soni 274, har sahifada 15 satrdan bitilgan.

Matn avvali:

Zihi zuhuri jamoling quyosh kibi paydo,
Yuzung quyoshig‘a zarroti kavn o‘lub shaydo.

Oxiri:

Ko‘yida o‘ldi Navoiy bu sifatkim, bor edi –
Tak’ya xarovu hasiri yoni ostida to‘shak.

Qo‘lyozma muqovasining tashqarisi va ichki laklangan charmdan qilingan, markazida va to‘rt burchagida o‘yib bo‘rttirib bosilgan naqshlar bor. Muqova novvot rangda, gul, shohlar va uzilgan yaproqlar rasmi b-n bezatilgan. Qo‘lyozma sharhi orasida alohida sahifada devondan bir bayt namuna u-n berilgan bo‘lib, unda quyidagi matla’li ikki g‘azal to‘la va bir g‘azalning matla’si mavjud:

Demangiz, ahbobkim, qilmasmusen bas
yig‘lamoq –
Kim, manga tengri nasib etmish
tuganmas yig‘lamoq...

Ko‘nglum bo‘lur g‘aming tuni har
lahza qoyg‘uluq,
Chun shom bo‘ldi, har nafas ortar qorong‘uluq.

Yoki:

Birov jismig‘a otsa ul siymtan o‘q,
Mening jonima sanchilur yuz tuman o‘q.

Bu g‘azallar “X.M.”ga – birinchi g‘azal “G‘.S.”ga, ikkinchisi “B.V.”ga va uchinchisi esa “F.K.”ga kiritilgan bo‘lib, uchalasi uch devonda 320-sirada keladi. Bu hol N.ning “X.M.” tasnifi ustida nechog‘lik jiddiy ishlaganidan dalolat beradi.

Qo‘lyozma nasta’liq xatining “xafiy” (oddiy, mayda) turida yozilgan. Xat san’atkor kotib xati emas. Lekin kitobat san’atidan xabardor shaxs qo‘li b-n yozilgan. Harflarni yozishda muayyan mutanosiblik saqlangan. Harflarning diakretik belgilari aniq va dona-dona qo‘yilgan. Ko‘rinadiki, qadimgi o‘zbek tilidan xabardor bo‘lmagan forsiyzabon kotiblarga yengillik tug‘dirish maqsadida shunday qilingan. Bu nusxaning N. tomonidan qoralama sifatida yozilgani yuqorida keltirilgan to‘rtlikda e’tirof etiladi. N. asarlari tilining tadqiqotchisi Mirzo Mahdixon Astrobodiyning shahodati ham qo‘lyozma N. dastxati ekanligini tasdiqlashda g‘oyat e’tiborlidir.

Hozircha, N. dastxati sifatida shu qo‘lyozma yagona bo‘lib, mustasno ahamiyatga molikdir.

Bu mo‘tabar dastxat N.ning 550 yilligi munosabati b-n kitob holida, to‘rt til (o‘zbek, rus, fors va ingliz)dagi so‘zboshi b-n nashr etildi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4 жилдлар. – Т., 2011; Фоҳрасти девонхои хаттий китобхонаи салтанати. – Теҳрон, 1976; Абдуллаев В., Валихўжаев Б., Ҳайитметов А., Ғаниева С. Табаррук дастхат // 8.02.1980*

S.G‘.

“NAVOIY ZAMONDOSHLARI” – N. tavalludining 500 yilligi munosabati b-n taniqli folklorshunos olim Hodi Zarif tomonidan nashrga tayyorlanib, 1948-y. chop etilgan to‘plam. U XIV–XV asrlarda yetishib chiqqan Durbek, Haydar Xorazmiy, Yusuf Amiriy, Sakkokiy, Atoiy, Lutfiy, Husayniy (Husayn Boyqaro), Shayboniy, Bobur kabi o‘zbek shoirlari asarlaridan namunalarni o‘z ichiga oladi. Ularning aksariyati ilk bor o‘quvchilar hukmiga havola qilingani b-n ilmiy-adabiy ahamiyat kasb etadi. M-n, birinchi marta Atoiyning 88 ta, Husayniyning 139 ta g‘azali e’lon qilinadi.

H.Zarif to‘plamga “Navoiyning adabiy muhitiga doir” nomli salmoqli so‘zboshi ham yozgan. Unda N.gacha Movarounnahrda mavjud bo‘lgan turkiy adabiy muhit uning o‘zbek tilida ijod qilishi va kamolot cho‘qqisiga yetishida o‘ziga xos zamin bo‘lganligi ko‘rsatib beriladi: “Navoiyning bu daraja fazilat va kamolot egasi bo‘lib yetishuvi O‘rta Osiyoda juda qadim zamonlardan davom etkan madaniy va adabiy harakatning qonuniy takomili edi”. Ayni paytda, forsiy adabiyotning bu qadar gullab-yashnashida turkiy xalqlardan yetishib chiqqan so‘z san’atkorlarining ham katta hissasi borligi, u umumiy adabiy til bo‘lganligini ta’kidlaydi. Shu tariqa, “Qadim o‘zbek va fors tilidagi she’riyatning Alishergacha yig‘ilgan xazinasi uning o‘z ona tilidagi ijodiy kamolotiga barakali oziq bo‘ldi”, – deb yozadi. Shundan keyin Xorazmiy, Amiriy, Sayyid Ahmad, Sayfi Saroyi kabi turkiy shoirlar ijodi, ularning bir-biriga ta’siri, nomanavislik an’anasi xususida qisqacha fikr yuritib, Durbek, Haydar, Amiriy, Sakkokiy, Atoiy, Lutfiy kabi N.gacha yashab ijod qilgan va ulug‘ shoir kamolotiga o‘ziga xos ta’sir ko‘rsatgan shoirlar hayoti va ijodini muxtasar tahlil qiladi. Asarlaridan namunalar keltirishdan avval har bir shoir haqida ixcham ma’lumotlar keltiradi. Bu ma’lumotnomalar har bir shoir ijodiga xos xususiyatlarni aniq ifodalaganligi b-n ajralib turadi. Jumladan, Bobur ijodi shunday xarakterlanadi: “Bobur o‘zbek klassik adabiyotida Atoiy va Lutfiylar ijodi b-n ko‘tarilib, N. ijodi b-n balog‘atga erishgan dunyoviy lirikani da-

vom ettirdi. Shuning u-n uning she'rlari insoniy muhabbat qo'shiqlaridan, insonning real hayot u-n kurashidagi zavqi, dardi, alami va orzularining ifodasi bo'lishi b-n xarakterlanadi. Uning "Boburnoma"si b-n yaxshi tanishib, devoniga qaralsa, u yerdagi she'rlar Bobur hayotining, uning ichki kechinmalarining, shavqli va dardli kunlarining badiiy ifodasi ekanligini bilib olish qiyin emasdir" (180–181-betlar). Yoki Husayniy haqida olim yozadi: "Qizig'i shundaki, Husayniyning hamma g'azallari bir xil vaznda yozilgan. Bu hol boshqa shoirlarda hech ko'rinmaydi. Buning sababi hali aniqlangan emasdir. Husayniyning she'rlari obrazlarning go'zalligi, ichki kechinmalarning jozibador ifodalanishi, uslubining ravonligi, tilining puxtaligi bilan ko'zga tashlanadi" (150-bet). Har bir shoir haqidagi bunday aniq xulosalar ma'lumotnomalarni o'ziga xos jajji tadqiqotlar darajasiga ko'targan. To'plam oxirida sahifalararo izohlardan tashqari sakkiz yuzdan ortiq so'zning lug'aviy ma'nolari berilgan. To'plam N.gacha bo'lgan o'zbek adabiyotidan o'ziga xos majmua bo'lganligi b-n katta ilmiy-adabiy ahamiyatga ega. Chunki bu shoirlar ijodi XX asrning birinchi yarmida hali keng xalq ommasiga yaxshi ma'lum emas edi. "N.Z." matn nuqtayi nazari b-n ham, asarlarning tanilishi va ularning baholanishi jihatidan ham juda yuqori saviyada tayyorlangan ilmiy-filologik to'plamdir.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Навоий замондошлари (Терма шеърлар). Нашрга тайёрловчи Ҳ.Зариф. – Т., 1948; Мирзаева Б. "Навоий замондошлари" тўплами ҳақида // Ўзбек адабиёти масалалари (Мақолалар тўплами). – Т., 2013.*

E.O., B.M.

"NAVOIY ZAMONDOSHLARI E'TIROFIDA" – matnshunos, n.shunos olim Sh.Sirojiddinovning N. hayoti, faoliyatiga doir izlanishlari asosida tayyorlangan ilmiy risola. Risolada N.ning zamondoshlari Abdurahmon Jomiy, Abdulloh Hotifiy, Kamoliddin Husayn Koshifiy, Atoulloh Asiliy, Shamsiddin Muhammad Badaxshiy, Ahliy Sheroziy, Atoulloh Husayniy, Kamoliddin Binoiy, G'iyosiddin Xondamir asarlaridagi N.ga oid ma'lumotlar tahlil etilgan. Jomiy va N. ta'rifida Alloh taoloning irodasi b-n bu ikki buyuk zot bir davrda yashab ijod etgani, ustoz-shogirdlik munosabatlari, o'zaro ta'sir, Jomiyning asarlari baland sur'at b-n, asosan, qirq yoshdan keyin yozilgani, fors-tojik adabiyotini jonlantirish orzusi uni shiddat b-n ijod qilishga undagani aytiladi. Olim ta'kidicha, "Navoiydek ilhom manbayi Jomiyda mudrab yotgan ijod vulqonini qo'zg'olishiga bois bo'lishi va Jomiy tomonidan Navoiyning buyuk mutafakkir bo'lib yetishishiga tayyorlangan tagzamin, bu barchasi buyuk do'stlik atalmish ne'matning hosilasidir". Abdulloh Hotifiyga atalgan qismda Hotifiy va N. ijodini qiyosiy o'rganish zarurligi aytiladi. N. zamondoshlari ta'rifida ketma-ket berilgan har bir ijodkorga oid ma'lumot bir qancha xususiyatlari b-n ahamiyatli. Birinchidan, mazkur ijodkorlarning N. rahnamoligida yetishgani, N.ga bag'ishlangan qasidalari asarlarining nechanchi bobidan o'rin olgani, qo'lyozmalari raqamiga qadar aniq aytilgan. Ikkinchidan, bu davrdagi faol janrlarni ham bilish mumkin, N.ga madhiyalar, qasidalar yozilgani, muammo yaratish urf bo'lgani, she'r nazariyasiga doir maxsus asarlar yozilgani, tarjima ishlari olib borilgani kabi XV asr adabiy muhitidagi qizg'in jarayonning borishi haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Jumladan, Shamsiddin Muhammad Badaxshiyga muammo bitishni buyurgani, Atoulloh Asiliyning "Ravzat ul-ahbob", Atoulloh Husayniyning "Badoye' us-sanoye'" asari N. talabchanligi va rahnamoligida bajarilgani ko'rsatiladi. Ahliy Sheroziyning N.ga bag'ishlangan qasidasi ilk bora olim tomonidan aniqlanib, maqola (1991) shaklida e'lon qilingan. Sh.Sirojiddinov Sheroziyning N.ga bir emas, uchta qasida bag'ishlaganini Fursat Sheroziyning "Osori Ajam", Lutfali Ozarning "Otashkada", Amin Ahmad Roziy "Haft iqlim"

tazkiralaridagi ma’lumotlar asosida dalillaydi. Kamoliddin Binoiyning N.ga atab qasida yozgani va u yo‘qolgani, umuman, qasidaning yaratilish tarixi, ular o‘rtasidagi munosabatning keskinlashuviga sabab bo‘lgan nozik masalalarga qadar yoritilgan. Umuman, har bir ijodkorga atalgan maqolada olim o‘sha adib ijodi, asarlari mazmuni, davr adabiyotida badiiy didning yuksalishida N.ning e’tibori va qat’iy talabchanligi muhim yo‘naltiruvchi kuch kasb etganini ochib beradi. Kitobdagi e’tiroflardan N. iqtidorli yoshlarga ustoz, homiy, g‘oyaviy rahnamo, sinchkov olim, samimiy do‘st, ijod, ilhom manbayi, xalq hayotidan ogoh shaxs sifatida gavdalanib boradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1–4-жилдлар. – Т., 2011; Сирожиддинов Ш. Навоий замондошлари эътирофида. – Самарқанд, 1996.*

O.T.

“NAVOIY ZAMONDOSHLARI MAKTUBLARIDA” − taniqli sharqshunos olimlar, tarix fanlari d-lari A.O‘rinboyev va M.Hasanovlar qalamiga mansub risola. Unda N.ga yo‘llangan maktublar va ular o‘rin olgan manbalar tahlilga tortiladi. Maktublar tadqiqi asosida uning odil, bunyodkor, xalqparvar davlat arbobi, ilmfan, madaniyat va adabiyot homiysi, mazlumlar himoyachisi sifatidagi ulug‘vor siymosining ayrim qirralari yoritiladi.

Buxorolik mashhur adib va muarrix Sadr Ziyoning shaxsiy kutubxonasida Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutiga topshirilgan “Majmuayi murosalot” (“Navoiy albomi”) to‘plami 16 ta muallif tomonidan yo‘llangan 594 ta maktubni o‘z ichiga oladi. Ularning ko‘pchiligi N.ga, qolganlari Husayn Boyqaro, Jomiy va boshqalarga yuborilgan. Mualliflar “N.M.”dagi N.ning Xoja Ahror maktublarini to‘plagani haqidagi ma’lumotidan kelib chiqib, uni N. tuzgan, degan fikrni ilgari suradilar. Chunki unda Xoja Ahror qalamiga mansub 128 ta maktub mavjud. Shuning u-n ham u “Navoiy albomi” nomi b-n yuritilib kelmoqda. U 1490-y.dan keyin tuzilgan.

1490-y.dan oldin tuzilgan “Munshaoti Jomiy” (“Jomiy maktublari”)dagi 33 ta maktub davlat arboblariga yo‘llangan. O‘z-o‘zidan, ularning ko‘pchiligi N.ga yozilgan. Ulardan 10 tasi “Xam.M.”da ham keltirilgan.

“Xam.M.” (“Besh hayrat”) 1494-y. N.ning ustozi Jomiy xotirasini abadiylashtirish maqsadida yozgan asari. Unda Jomiyning o‘ziga yozgan 17 ta xati keltirilgan.

N. homiyligida yashab ijod qilgan shoir, davlat arbobi, mashshoq va xattot Abdullo Marvaridning “Munshaoti Marvarid” (“Marvarid maktublari”) asari ham muhim ahamiyatga ega: undan N.ning Shirvonga − Farruxshohga, Xoja Shamsiddin va boshqalarga yozgan maktublari, shuningdek, Jomiyning N. b-n yozishmalari o‘rin olgan. To‘plamga Husayn Boyqaro tomonidan do‘stining hajga borishi u-n bergan ijozatnomasi, N.ning 1487-y. Astrobodga hokim etib tayinlanishi munosabati b-n Sulton Husaynning oqquyunlilar hukmdori Ya’qubbekka yozgan maktubi ham kiritilgan (keyingi ikki hujjat risolaga ilova qilingan).

Nomi, tuzuvchisi va tuzilgan yili noma’lum “Majmu’ayi ruq’aot va munshaot” (“Ruq’a va insholar majmuasi”)da Darveshalining isyoni munosabati b-n Husayn Boyqaroning N. nomiga chiqargan nishoni keltirilgan. Nishonda ukasining Sultonga qarshi harakati tufayli N.ga nisbatan biror nojo‘ya harakatga yo‘l qo‘yilmasligi ta’kidlangan.

Eronlik olim Abdulhusayn N. to‘plagan “Asnod va mukotibi tarixiyi Eron az Temur to shoh Ismoil” (“Temurdan to shoh Ismoilgacha bo‘lgan Eronning tarixiy hujjatlari va xatlari”) to‘plamida Boyqaroning haj munosabati b-n N.ga yozgan xati, N.ning javobi va N.ning Shirvon shohi Farruxga yo‘llagan maktubi berilgan.

Manbalar haqida ma’lumot berib bo‘lgach, mualliflar Xoja Ahror, Abdurahmon Jomiy, Muhammad ibn Aminuddin, Mir Abdulavval Nishopuriy, Mavlono Xo‘ja Ali, Mavlono Qosim, Muhammad Tabodgoniy, Xoja Muhammad Yahyo, Xoja Muhammad Abdulloh, Muhammad ibn Abdulmaliklarning N.ga yozgan maktublarini tahlil

qilmadilar. Maktublar tahlili N.ning hammaning hojati tushadigan va hammaning hojatini bitiradigan tengsiz hojatbaror inson, katta-yu kichik ishonadigan va suyanadigan zot bo‘lganini ko‘rsatadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамсат ул-мутаҳаййирин. ТАТ. 10-жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Муншаот. ТАТ, 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ўринбоев А., Ҳасанов М. Навоий замондошлари мактубларида. – Т., 1990.*

E.O.

“NAVOIY YODGA OLGAN ASARLAR” – taniqli n.shunos olima O‘zbekiston Qahramoni S.G‘aniyevaning N.ning 20 jildlik “Mukammal asarlar to‘plami”dan o‘rin olgan adabiy merosi asosida ulug‘ shoir qalamiga mansub turli namunalarda biror munosabat b-n zikr etib o‘tilgan asarlar haqida mo‘jaz ma’lumot beruvchi risolasi. O‘quvchilarga foydalanish oson bo‘lsin u-n unda asarlarning nomi alifbo tartibida joylashtirilgan. Kitobning maqsadi va mazmun-mundarijasi b-n tanishtiruvchi muqaddima b-n boshlanadi. Unda N. ijodida uchraydigan 200 dan ziyod asarga izoh berilib, ular shoirning qaysi kitobida tilga olingani ko‘rsatiladi va aksariyati tasavvufga oiddir. Ma’lumotlarning oz yoki ko‘pligiga qarab, ushbu asarlarga ixcham yoki batafsil izoh berilgan. M-n: “Kimyo” / “Kimyoyi saodat” – Imom Abu Homid Muhammad ibni G‘azzoliyning asari. 4 jilddan iborat arab tilidagi “Ihyo ulumid din” (“Diniy ilmlarni tiriltirish”)ning forsiydagi soddalashtirilgan nusxasi. Bu asar 4 qismdan iborat bo‘lgani u-n “Chahor kitob” ham deyiladi. “Kimyo” musulmonlik ruknlari, muomala odoblari, halokatga yetkazuvchi, najot beruvchi narsalar deb nomlangan 4 qismdan iborat. Tasavvufning axloqiy masalalari (har qismi 10 bobdan iborat)ga ham alohida ahamiyat berilgan. Asarning turkiyga qilingan tarjimalari ham bor” (“H.A.”). “So‘fiya istilohoti” – Shayx Kamoluddin Abdurazzoq Koshiy (vaf. 1389–1390) ning tasavvufga oid lug‘atnoma tarzidagi asari (“N.M.”). Mazkur risola orqali ulug‘ mutafakkir shoir dunyoqarashi, u e’tibor qaratgan kitoblar, bu asarlarning N. ijodiy kamolotida tutgan o‘rni xususida ham tasavvurga ega bo‘lish mumin.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Ғаниева С. Навоий ёдга олган асарлар. – Т., 2004.*

M.A.

NAVOIY IJODIDA FONEMALAR – dunyo tilshunoslari unlilarning fonematik xususiyatini turlicha aniqlaydilar. Praga tilshunoslari qoidalar asosida, Amerika fonologlari distributsiya metodidan foydalanadilar. Bu qoidaga muvofiq unlilar kontrast (qarama-qarshi) distributsiyada ma’no ajratsa, ya’ni so‘z ma’nosiga ta’sir qilsa, fonema, ma’no ajratmasa, variant hisoblanadi. N.ning unlilar fonematik xususiyatini qanday usul asosida aniqlagani haqida “M.L.”da aniq ma’lumot bor.

Fonemani aniqlash usuli

“M.L.”dagi to‘rtta o‘t va to‘rtta to‘r so‘zlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, shoir bu so‘zlarni ular tarkibidagi *o‘* ning uzun-qisqalik darajasi bo‘yicha joylashtirgan. Bu darajalanish daqiq va oriq terminlari orqali ko‘rsatilgan. Demak, mumtoz o‘zbek tilidagi unlilarning fonematik xususiyati darajalanish metodi orqali ko‘rsatilgan.

N. “M.L.”da *to‘r* so‘zida bir-biridan uzun-qisqalikda farqlanuvchi to‘rtta *o‘* fonemasi haqida shunday yozadi: “روت *to‘:rki*, domdur, yana روت *to‘:r* ki andin daqiqroqdur: qush o‘lturur yig‘ochdur va روت *to‘:rki* uyning to‘ridur va روت *to‘:rki*, barchadin ariqdur: to‘rlug‘ni yo eshikni to‘rmak uydur”. Ushbu misolda birinchi *to‘:rda* cho‘ziq *o‘*:, ikkinchi *to‘:rda* birinchidan qisqaroq *o‘*:, uchinchi *to‘:rda* ikkinchisiga nisbatan qisqa *o‘*:, to‘rtinchi *to‘:rda* hammasidan qisqa *o‘* ishlatilganligi haqida ma’lumot berilgan.

Bu so‘zlarda haqiqatan ham cho‘ziq o‘: ishlatilganligini Mahmud Koshg‘ariy devonidan ham

bilish mumkin. Olim cho‘ziqlikni shamma va ishbo’ terminlari orqali ko‘rsatgan:

روت – to‘:r – shamma bilan – uyning to‘ri
روت – to‘:r – ishba’ bilan – baliq va qush tutadigan asbob.

Shoir o‘t so‘zi misolida ham bir-biridan uzun-qisqalikda farqlanuvchi to‘rtta *o‘* fonemasi haqida ma’lumot beradi: “ توا *o‘:tki* shay’i muhrik (kuydiruvchi narsa)dur va توا *o‘:t* murur (yur) ma’nisi bila va توا *o‘:t* muqammirg‘a burd jihatdin amr (qimorda yut) va توا *o‘:t* ki boridin oriq harakatdur, kallani o‘tg‘a tutup, tukin aritur ma’nidadur”

Bu misolda ham to‘rtta *o‘* ning fonematik xususiyati darajalanish metodi orqali ko‘rsatilgan.

Demak, N. bundan salkam olti yuz yil ilgari unlilarning fonematik xususiyatini darajalanish metodi asosida aniqlagan.

Fonema variantini aniqlash usuli

Shoir fonema variantini aniqlashda distributsiya (qurshov) metodidan foydalangan. Bu metodning mohiyati shundaki, bir xil distributsiyadagi unlilar o‘zaro o‘rin almashganda so‘z ma’nosiga ta’sir qilmasa fonema varianti hisoblanadi. N. alif (ا) va hoyi havvaz (ه), vov (و) va zamma (ـُ), yoy (ي) va kasra (ـِ) ma’noga ta’sir qilmagan holda bir-birini o‘rnida erkin ishlatilishi mumkin, deb yozadi. Bu esa ular bir-biriga variant ekanligini ko‘rsatadi. Shoir bu xususiyat bilan mumtoz o‘zbek tilidagi unlilar fors tilidan tubdan farq qilishini uqtirib, o‘zbek tilida qofiya yaratish fors tiliga nisbatan suhuliyat, ya’ni osonroq, yengilroq ekanligini ta’kidlaydi. Hozirda bu usul Amerika olimlari tomonidan distributiv metod deb ataladi.

A) ***Alif va hoyi havvaz***

N. oddiy *a* ni ifodalovchi alifli so‘zlar, qofiya talabi bilan qisqa *a* ni anglatuvchi hoyi havvazli kalimalarga variant bo‘la olishini ta’kidlab shunday yozadi: “Ul jumladin biri, alif bila ho orasida munosabat va mushorakat beribturlarki, bir lafzni ham oxiri alif lafz birla qofiya qilsa bo‘lur. Andoqki ارا ara “bezash” lafzin ارس – sara “saroy” va ارد dara “kel” bila qofiya qilsa bo‘lur”, هرس – sara “toza” va هرد vodiy bila ham qofiya qilsa bo‘lur”.

Ushbu iqtibosda N. alif bilan yoziluvchi ارا – ara so‘zini alifli ارس – sara “saroy” va ارد dara “kel” shu bilan birga ه – hoyi havvazli هرس – sara “toza” va هرد vodiy bilan qofiya bo‘la olishini ta’kidlamoqda. Bu misol bilan shoir alif va hoyi havvaz bir-birini o‘rnida erkin ishlatilishi mumkinligi, bu esa ular o‘zaro variant bo‘la olishi haqida ma’lumot bermoqda. N. quyidagi misolda ham ikkita *a* haqida ma’lumot beradi: “Andoqki, ادي yada lafzin ادص sada “ovoz” va هداب boda vino bila ham qofiya qilsa bo‘lur”. Bu misolda ovoz ma’nosidagi ادص sada so‘zida oddiy a, هداب boda so‘zida qisqa *a* unlisi ishlatilgan. Bu misolda ham alif hoyi havvazga variant ekanligi ko‘rsatilgan. Ushbu iqtiboslarda tilshunoslik, ayniqsa, mumtoz o‘zbek tili fonetikasi uchun muhim ma’lumot bor: alif va hoyi havvaz bir-biriga variant. Shoir alif o‘rnida hoyi havvaz va aksincha hoyi havvaz o‘rnida alif ishlatilishi mumkinligini ko‘rsatmoqda.

B) ***Vov va zamma***

Shoir “M.L.”da oddiy *u* ni ifodalovchi vovli so‘zlarni qisqa *u* ni anglatuvchi zammali kalimalarga qofiya bo‘la olishi haqida shunday yozadi: “Va vov bila zamma orasida ham ul nav’ shirkatdur. Andoqki, رورپا lafzin رح hur “ozod”, “رد” dur “marvarid” lafzi bila qofiya qilsa bo‘lur, رورغ g‘urur “maqtanish” va رورض zarur “kerakli” lafzi bila ham joyizdur”.

Ushbu iqtibosda *vov* b-n yoziluvchi *erur* so‘zini *zamma* b-n ifodalanuvchi hur va dur, shuningdek , *vov* b-n yoziluvchi *g‘urur* va *zarur* kalimalariga qofiya bo‘la olishi ko‘rsatilgan. Bu misollarda vov va zamma bir-birini o‘rnida ishlatilishi mumkin, ya’ni variant ekanligi ko‘rsatilgan.

D) ***Yoy va kasra***

N. “M.L.”da oddiy *i* ni *yoy* (ي), qisqa *i* ni (ـِ) *kasra* orqali ko‘rsatgan. Shoir yozadi: “Va yo

bila kasra orasida dag‘i bir nav’dur, andoqki, ریغآ “ag‘ir” (og‘ir) va ریغاب “bag‘ir” (jigar) alfozin رداص .sadir “bajarildi” va رداق qodir (imkon) alfozi bila qofiya qilsa bo‘lur, یبعت ta’bir “oldindan bashorat qilmoq” va ریخات ta’xir “kechikish” alfozi bila ham bo‘lurki, forsiy alfozda bu suhulatlar yo‘qtur”.

Ushbu iqtibos bizga yoy va kasra bir-biriga variant ekanligini ko‘rsatmoqda. Bu bilan shoir yoy o‘rnida ma’lum o‘rinlarda kasra va aksincha kasra o‘rnida yoy ishlatilishi mumkinligi haqida ma’lumot bermoqda. Ko‘rinib turibdiki, N. qariyb olti yuz yil ilgari fonema bilan fonema variantini farqlagan. Fonema ma’no ajratish xususiyatiga ega, fonema varianti esa bu xususiyatdan mahrum.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, N. *to‘:r* va *o‘:t* so‘zlari misolida ma’no ajratish xususiyatiga ega bo‘lgan to‘rtta *o‘* ning fonemalik xususiyatini darajalanish metodi orqali ko‘rsatgan.

Shoir alif va hoyi havvaz, vov va zamma, yoy va kasrali so‘zlar misolida fonema variantini distributiv metodi asosida ko‘rsatgan. Ularni o‘zaro o‘rnini almashtirib ishlatish mumkin. Afsuslanarlisi shuki, biz shu vaqtgacha N.ning bu ma’lumotlariga e’tibor bermay, Yevropa olimlarining til oldi, til orqa, singarmonizm kabi tilimizga yot qarashlari asosida ish olib borib, bebaho boyliklarimizni *a, o, u, u, yo* kabi sun’iy belgilar bilan nashr qildik. Bu bilan ularni xalqimizdan uzoqlashtirdik. Mustaqillik endi bu xatolarga barham berishi kerak. Bundan tashqari bu misollar bizga uch xil ma’lumot beradi: 1. N.ning eshitish qobiliyati nihoyatda kuchli bo‘lgan;

2. Fonetika mutaxassisi sifatida ma’no ajratish xususiyatiga ega bo‘lgan fonema bilan bu xususiyatdan mahrum bo‘lgan tovushni farqlagan va Amerika olimlaridan qariyb olti yuz yil ilgari distributiv metoddan foydalangan;

3. Mumtoz o‘zbek tilida unlilar bir-biridan uzun–qisqalik bilan farqlangan. Turkiy so‘zlardagi uzun-qisqalik N.ga aruzda erkin ijod qilishga keng imkon bergan.

Ad.: *Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Маҳмуд Кошғарий. Девону луғатит турк. – Алмата, 2005; Нурмонов А. Тақриз // Маърифатга интилиш саодати. – Самарқанд, 2011.*

E.U.

NAVOIY IJODIYOTINING OLAMSHUMUL AHAMIYATI – Ilm-fan, madaniyat, san’at, ayniqsa, adabiyotning jamiyatdagi umumiy ahvoliga qarab, har qanday davlat yoxud hokimiyatning ichki dunyosi, ijtimoiy-siyosiy boshqaruvdan ko‘zlangan tub maqsadini bemalol anglasa bo‘ladi. Tarixga nazar tashlansa, ma’rifat va madaniyatga keng e’tibor qaratilgan mamlakatlarning deyarli barchasida ibratli yutuq va moddiy natijalar qo‘lga kiritilganligi oydinlashadi.

Taniqli tarixchi olim Z.V.To‘g‘onning yozishicha, turli imperiyalarga mansub va madaniyatning qadr-qimmatini har kishidan yuqori tushungan xon, sulton, podshohlarning hukmronlik umri ancha uzoq cho‘zilib, ular ko‘p ezgu ishlarni o‘zlaridan yodgor qoldirishgan. M-n, qoraxoniylardan Horun Bug‘roxon 40 yil, Yusuf Qodirxon 35 yil, Ahmad Arslon 27, xorazmshohlardan Otsiz va Takash 28 yil, temuriylardan Jahongirning o‘zi 35, Shohruh mirzo 43, Sulton Ulug‘bek 41, Husayn Boyqaro 38 yil saltanat boshida turgan.

Adabiyot to‘laqonli adabiyot sifatida faoliyat ko‘rsatmog‘i u-n ijtimoiy barqarorlik, iqtisodiy ma’murlik va siyosiy erkinlik sharoitidan benasib bo‘lmasligi zarur. Xususan, siyosiy erksizlik, mafkuraviy ta’qiblar daho ijodkorlar yo‘liga ham to‘siqlar qo‘yadi. Abusaid mirzo hukm yuritgan zamonlarda shunday to‘siqlar N. qarshisida ko‘ndalang turgan. Shoir shunda xalq va Vatan ishqiga tayanib, din va tasavvufdan o‘ziga najot istab, dunyoqarashi ufqlarini kengaytirishga dadil uringan. N. ijodiyotidagi islomiy tushunchalar talqini soxtalashtirib yoki sayoz tarzda ko‘rsatilsa, shoirning asl qiyofasi tubdan xiralashib ketadi. Adl, insof, diyonat, imon, shafqat, himmat – kabilarni talqin qilishni N. islom mafkurasiga tayanib, zulm, zo‘ravonlik, haqsizlik va har turli bedodliklarni qoralashda ham undan ilhomlangan.

“H.A.”dagi zolim podshohlarga qarata yo‘naltirilgan so‘zlar, bir tomondan, mutafakkir shoirning odillik, adolatparvarlikka sodiqligini namoyish qilsa, ikkinchidan, rostlik, shijoat, kurashchanlikda sobitligini ko‘rsatadi:

Eyki, qoviy ayladi davlat qo‘lung,
Zulm sori tushti va lekin yo‘ling.

Zulm o‘zungga fisqdur, ey hushyor,
Gum qil oni, bo‘lsa sanga hush yor.

Qasrki, bazm anda muhayyo bo‘lub,
Ziynati firdavsi muallo bo‘lub.

Pardalari rishtasi el jonidin,
La’li-yu shingarfi ulus qonidin.

Shamsasi el moli bila zarnigor,
El dur-u la’li bila gavhar nigor...

Zulmni tark aylavu dod aylagil,
Marg kunidin dog‘i yod aylagil.

Zulmung erur kunduz-u fisqing kecha,
Zulm ila fisqing necha, bo‘lg‘ay necha?

Gah-gahi yod ayla nadomatni ham,
Qaysi nadomatki, qiyomatni ham.

N.ning badiiy va ilmiy ijoddagi olamshumul muvaffaqiyatlaridan so‘zlaganda, uning Movarounnahr zaminida kechgan yillarini ham nazardan hech soqit etmaslik kerak. Akad. V.Abdullayev N.ni, avvalo, “ko‘pchiligini o‘zbeklar tashkil qilgan Movarounnahr aholisining buyuk shoiri deb, so‘ngra, shuning b-n birga o‘z xalqiga qilgan ulug‘vor xizmatlari tufayli barcha taraqqiyparvar xalqlar shoiri deb tushunish lozim”, – deydi.

N. Samarqandga kelganida, ilm-fan, adabiyot, maorif va madaniyati tanazzulga yo‘liqqan Hirotga nisbatan boshqacha holat – “olimlar, shoirlarning Ulug‘bek an’analarini jonlantirish yo‘lidagi harakatlarining guvohi bo‘lgan edi”. Murakkab bir davr, ziddiyatli zamon voqea-hodisalariga to‘g‘ri nazar tashlashda ham, ilm va ma’rifat kuch-quvvatiga ishonchning o‘sishi hamda adabiyotning umuminsoniy balandliklarga olib chiqish sir-asrorini teran o‘zlashtirishda ham Samarqand ilmiy-adabiy va madaniy muhiti N.ga yaqindan yordam ko‘rsatgan edi. Samarqanddan ustozi Sayyid Hasan Ardasherga yozilgan she’riy maktub N.ning kelajakda umumbashariy mavzu va g‘oyalarni badiiy talqin etishga qodir, o‘z qadri va imkonini xatosiz anglagan haqgo‘y san’atkor o‘laroq shakllanganidan guvohlik beradi. Amir Temurning jahongirligiga, Mirzo Ulug‘bekning ma’rifatparvarligi va Xoja Ahrori Valining kashf-u karomatlariga guvoh bo‘lgan, Samarqandda o‘tgan hayot, ilm va irfon arboblaridan olingan tahsil, madaniy-ma’rifiy muloqotlar N.ni ilm-fan, odil siyosat, iqtisodiy ma’murchilikka asoslangan buyuk davlatchilik tajribalari xususida o‘ylashga ham yo‘llagan. O‘sha fikr-mulohaza va xulosalarning ma’lum bir qismi keyinchalik daho shoirning asarlari, xususan, “X.” dostonlaridan ham o‘rin olgan edi. Xullas, Samarqand o‘zining “salobatli tarixi, qizg‘in iqtisodiy va madaniy hayoti b-n ham Alisher zehnida chuqur va yoqimli xotiralar qoldirgan”dir.

Temurxon naslidin sulton Ulug‘bek
Ki, olam ko‘rmadi sulton aningdek.

Aning abnoyi jinsi bo‘ldi barbod
Ki, davr ahli biridin aylamas yod.

Valek ul ilm sori topti chu dast,
Ko‘zi olinda bo‘ldi osmon past.

Rasadkim bog‘lamish – zebi jahondur,
Jahon ichra yana bir osmondur

kabi misralarning dunyoga kelishida xotira va yoshlik taassurotlarining ham roli bo‘lgan.

Islom dini zaminida dunyoga kelgan tasavvufning muhib va qiziquvchilari asta-sekin G‘arbda ham ko‘payib borgan. Shu ma’noda

tasavvuf g‘arblik va sharqliklarning tafakkurini bir-biriga bog‘lovchi, birining axloqiy-ma’naviy ehtiyojini ikkinchisinikiga yaqinlashtirib, ko‘ngil hamjihatligini sobitlashtiruvchi ishq, ma’rifat va go‘zallik yo‘lidir.

N. rasman naqshbandiylik tariqatiga kirgan bo‘lsa ham, hayotda, ijodda tasavvufning ilm va irfon jihatiga tayangan. Axloq tarbiyasida alohida natijalarni qo‘lga kiritish, tafakkurni mahdudlik, qoloqlik iskanjalaridan ozod qilish, ruh va ko‘ngil sir-asrorini kashf etishda N. haqiqiy ishq va ma’rifatdan mohirlik b-n foydalangan:

Bo‘lmasa ishq, ikki jahon bo‘lmasin,
Ikki jahon demaki, jon bo‘lmasin.

Ilohiy va majoziy ishq uyg‘unligidan tug‘ilgan ushbu baytda “ikki jahon” iborasi faqat badiiy usul talabi b-n emas, balki mohiyat ehtiyojidan ham ikki bora takrorlangan. Modomiki, dunyo ishq tufayli va ishq zavqi b-n yaratilgan ekan, ahli olam ishqsizlik – dinsizlikdan battarligini anglashi barobarida teran idrok eta bilishi ham zarurdir.

“X.”da yaratilgan asosiy qahramon va yordamchi obrazlardan tashqari, turli ijtimoiy tabaqa, guruh va toifaga mansub kishilar bir joyga jamlansa, birinchidan, irqi, millati, yashash shart-sharoiti, urf-odat va turmush ko‘nikmalari o‘zaro farqlanadigan bag‘oyat ulkan izdihom b-n yuzma-yuz kelinsa, ikkinchidan, fikr-qarash, orzu-umid va umumiy intilishlardagi mushtaraklik ko‘zga tashlanadi. Shunga ko‘ra, “X.” qahramonlarining biri-biridan yiroq millat vakillari ekanligi, ulardagi irqiy, milliy, diniy, mahalliy mayl, tushuncha, kayfiyat degan narsa o‘quvchida alohida qiziqish paydo qilmaydi. Nima degan bo‘lsa, “ulusqa marg‘ub”, nima yozgan bo‘lsa, “ko‘ngulga mahbub” etilishini Xudodan tilagan N. chindan ham “o‘z asarlarini, xususan, dostonlarini yozayotganda, xalqni, bitta xalqni emas, butun insoniyatni nazarda tutgan” va “yetti iqlim eli” ularga xaridor bo‘lishini orzu qilgan.

Badiiy so‘z b-n odamni odamga yaqinlashtirib, ulardagi o‘zaro yiroqlik, xusumat va g‘ofillikka barham berishga hissa qo‘shish oddiy yumush emas. N. ijodiy shaxsiyati, tafakkur kuch-quvvatiga inongani u-n ham olam ahliga murojaat qilib:

Olam ahli bilingizkim, ish emas dushmanlig‘,
Yor o‘lung bir-biringizgakim, erur yorlig‘ ish

degan.

Turkiy tilda so‘zlashuvchi qavm va xalqlar N.ning turli janr, xilma-xil mavzudagi asarlarini asrlar mobaynida o‘qib-o‘rganishgan. Bu jarayon oldingisidan necha bora bugun kengaygan. Zero, usmonli turk n.shunosi Yusuf Chetindog‘ aytganidek, “Turkiy xalqlar adabiyotida o‘z talanti, bebaho ijodi b-n dong taratgan shoir va adiblar ko‘p. Ammo aynan Navoiyga o‘xshaydigani yo‘q. Mana, Yunus Emroni olaylik. U faqat bizning xalqimiz orasida mashhur. Fuzuliy ozariylarning eng suyukli dahosi. Maxtumquli turkmanlarning birinchi shoiri va h.k. Navoiy esa turkiy ellarning barisi u-n bir xilda qadrli va ularning hammasini o‘z atrofida birlashtirishga qodir qalam sohibidir...”. Mustaqillik va istiqlol dunyo xalqlarining N. shaxsiyati va ijodiga qiziqishini yanada erkinlashtirdi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-жилдлар. – Т., 2011; Айний С. Асарлар. 8-жилд. – Т., 1967; Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. – Т., 1961; Навоийхонлик суҳбатлари. – Т., 1977; Зоҳидов В. Улуғ шоир ижодининг қалби. Абдуллаев В. Навоий Самарқандда. – Т., 1968. Султон И. Навоийнинг қалб дафтари. – Т., 1969; Белинский В.Г. Адабий орзулар. – Т., 1977. Четиндоғ Ю. Алишер Навоий. – Т., 2013; Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий: манбаларнинг қиёсий, текстологик таҳлили. – Т., 2011; Ҳаққул И. Навоийга қайтиш. 3-китоб. – Т., 2015.*

I.H.

NAVOIY KULLIYOTI – N.K.ning jahon qo‘lyozma fondlarida 6 nusxasi mavjud:

1. Istanbul. To‘pqopi-Revan kutubxonasi, inv. 808. N. asarlari bo‘yicha tuzilgan kulliyotlarning birinchi tuzuvchisi shoirning o‘zidir, 1490-y. boshida N.da o‘z she’riyatining kulliyotini tuzish fikri tug‘iladi. Butun umri davomida yozgan she’rlarini to‘plab, to‘rt devondan iborat “X.M.” ni tartib berdi. Shoir bu g‘oyat mas’uliyatli ishni o‘z davrining mashhur xattoti Darvesh Muhammad Toqiy b-n hamkorlikda amalga oshira boshlaydi. Kulliyotning mundarijasi va asarning joylashishini N.ning o‘zi belgilab bergan. Xattot Muhammad Toqiy “X.” dostonlari, “X.M.” devonlari va boshqa mavjud asarlarni juzv-juzv holida (oldindan kelishilgan o‘lchovda) ko‘chirib, kulliyot u-n tayyorlab beravergan. Shu jarayonda yangi yaratilgan asarlar ham ko‘chirib turilgan. Jumladan, 1498–1500-yy.da yozilgan “L.T.”, “M.L.”, “S.M.” asarlari ham mana shu kulliyot tarkibidan joy olgan. N.K.ga kirishi zarur bo‘lgan asarlar ko‘chirib bo‘lingach, ularning hammasiga umumiy bir so‘zboshi – “Munj.” asari yoziladi va N.K.ning boshlanishiga qo‘yiladi. “Munj.”ning 1500-y.da yozilganini hisobga olsak, demak, N.K. 1500-y.ning birinchi yarimida uzil-kesil tugallangan bo‘lib chiqadi. Bu fikrni quvvatlaydigan yana bir dalil 1500-y.ning oxirlarida yozib tugatilgan “M.Q.” ning ushbu kulliyot tarkibiga kirmay qolishidir. N.K.da N.ning turkiy tildagi 26 asari (“M.Q.”dan boshqa) kiritildi. N.K.ni Muhammad Toqiy Hirot shahrida besh yil (1495–1500) davomida ko‘chiradi. XVI asr boshlarida Turkiyaga olib kelingan N.K. hozirda Istanbul shahridagi To‘pqopi-Revan kutubxonasida saqlanmoqda. N.K.da Hirot ipak qog‘ozidan foydalanilgan, matn xafiy (ingichka) nasta’liq xati, qora siyoh b-n yozilgan va she’riy asarlar har sahifada 27 yo‘lli to‘rt ustundan joylashtirilgan. (Demak, har sahifada 108 misra). Qo‘lyozmaning ikki joyida kitobat ta’rixi qayd etilgan. N.K. XV asr oxiridagi kitobat san’atining eng yaxshi namunasi hisoblanadi.

N.K.ning boshqa nusxalari shoir vafotidan keyin tuzilgan va ko‘chirilgan.

2. Parij. Milliy kutubxona, inv. Supplu Turc. 316–317. Bu qo‘lyozma shoir vafotidan keyin tuzilgan birinchi kulliyot. Kitob 1526–27-yy.da Hirot shahrida xattot Ali Hijroniy tomonidan kitobat qilingan. Tarkibida N.ning 26 asari bor.

3. Sankt-Peterburg. M.E.Saltikov-Shchedrin nomidagi Davlat xalq kutubxonasi Sharq qo‘lyozmalar bo‘limi, inv. Dorn-558. Bu qo‘lyozma MDH dagi N.K.ning eng mukammali. Qo‘lyozma 1007/1598–99-yy.da Eronning Qizilog‘och shahrida xattot Nazarali Fayziy tomonidan kitobat qilingan. N.K.ning bu nusxasi N.ning 21 asarini o‘z ichiga oladi. Qo‘lyozma Hirot ipak qog‘oziga nafis nasta’liq xatda bitilgan. Sarlavhalar rangli siyohlarda va oltin suvida yozilgan. Matn har sahifada 25 yo‘lli 4 ustunda joylashgan va rangli jadval ichiga olingan. Har bir asarning boshlanishida nafis unvonlar bor. N.K. 722 varaqdan iborat.

4. London. Britaniya qirolligi Osiyo jamiyatining kutubxonasi, inv. OR 47. Qo‘lyozmaning kitobat joyi, ta’rixi va kotibi noma’lum. Qo‘lyozma ko‘p uringan, oralarida ancha varaqlari yo‘qolgan. Tarkibida N.ning 16 asari saqlanib qolgan. Matn mayda nafis nasta’liq xatida kitobat qilinib, har sahifada 27 yo‘lli to‘rt ustunda joylashgan va rangli jadvallar ichiga olingan. Har bir asar badiiy unvon b-n boshlangan, 4 minatyura bor, N.K. 632 varaqdan iborat.

5. Istanbul. Sulaymoniya kutubxonasi, inv. 4056. Bu ham N.K.larining mukammal nusxasi, biroq kitobat joyi, ta’rixi va kotibi ko‘rsatilmagan. Bu nusxa N.ning 26 asarini o‘z ichiga oladi. Matn mayda nasta’liq xatida bitilib, har sahifada to‘rt ustunda joylashtirilgan, 787 varaq.

6. Toshkent. ShQM. Inv. 316. Ushbu qo‘lyozma XIX asrga mansub. Uni xattot Abdurahim ibn Muhammadfozil Qoshg‘ariy 1824–30-yy. davomida Qoshg‘ar shahrida ko‘chirgan. Qo‘lyozma tarkibida shoirning 18 asari mavjud. Matn jaliy (yirik) nasta’liq xatida bitilgan, she’r

matni to‘rt ustunli 19 yo‘lli, dostonlar matni olti ustunli, 27 yo‘lli, nasriy asarlar 19 yoki 20 yo‘lda joylashgan. Har bir asar boshlanishida zarhal lavhalar mavjud. Qo‘lyozma 692 varaqdan tashkil topgan.

Ad.: *Навоий куллиёти. Тошкент. ЎзР ФА ШИ. Инв. 316; Алишер Навоий. ТАТ. 10 жилдлик, 1-10-жилдлар. – Т., 2011.*

Muh.A.

NAVOIY MAQBARASI Hirotda, Injil arig‘i va Mirzo Pahlaviy madrasasining janubi-g‘arb tomonida joylashgan. N.M.si keyinchalik atrofidagi binolar qatori tekislanib tashlangan, lekin N. muxlislari qabr shaklida qilib atrofini o‘rab qo‘yishgan, o‘sha yerlik aholi, hatto maqbara tuprog‘ini teri kasalliklar u-n dori sifatida ham ishlatganlar. Hayit kunlari shoir muxlislari qabr atrofida sham’ yoqib chiqishar, hayitning birinchi kunidan N. qabri ziyoratchilar b-n to‘lib ketar ekan. 1908-y. Hirot hokimi Amir Habibulloxon tashabbusi b-n qabr atroflari tekislanib, qabr ustiga to‘rt burchakli qora marmar qo‘yiladi va bir tup ko‘chat o‘tqaziladi, keyinchalik butun qabrga soya solgan ekan. N.M.si shu holatda to 1946-y.gacha turgan. Hirot hokimi Abdullo Malikyor 1947-y. Hirotdagi maqbaralarni ta’mirlashga va ba’zilarini qaytadan qurishga buyruq oladi. Shu singari N. maqbarasini tiklash maqsadida Hirotdagi mashhur muhandislarni jalb etadi, shulardan Oqoyi Hoji G‘ulomhaydar Muxtorzoda N.M.ning ta’mirlash ishlarini o‘z zimmasiga oladi. Maqbara gumbazi chiroyli ko‘rinishda qad rostlagan va devorida Xondamirning N. vafotida yozgan marsiyasi yozib qo‘yilgan:

Janobi Amir hidoyatpanohi,
Ki zohir az-u gasht osori rahmat.

Shud xor-zori jahon suyi bog‘i,
Ki onjo shukufta ast gulzori rahmat.

Chu nozil shud anvori rahmat ba ruhash,
Bijo‘ soli favtash zi “Anvori rahmat”

Ad.: *Муҳаммадёқуб Воҳидий. Амир Алишер Навоий – Фоний. – Кобул, 1346 ҳ.*

Muh.A.

NAVOIY MASALLARI O‘zbek adabiyoti tarixida N. masal janrining ham ilk yetuk namunalarini yaratgan ijodkordir. To‘g‘ri, shoir o‘zining bu tur asarlarini “masal” atamasi b-n yuritmaydi, balki o‘sha davrdagi joriy adabiy an’analarga muvofiq “hikoyat, tamsil, hikmat” kabi nomlar ostida keltiradi, ba’zan esa, bunday namunalar yirik asarlarning bob fasllari qismida hech qanday nomsiz uchraydi. Aytish kerakki, N. o‘z masallarining birortasini ham mustaqil adabiy janr namunasi sifatida, aytaylik, chiston (lug‘z), qit’a yoki muammolari kabi maxsus yaratgan emas – ularning hammasi yirik asarlari tarkibida, shu asarning uzviy bir qismi tarzida yaratilgan. Yaxlit yirik asar (bob yoki fasl) ning yetakchi g‘oya-motivlarini hayotiy lavha, taqqoslar vositasida namoyish etishi jamiyat va tabiat voqea-hodisalari misolida izohlash va dalillash vazifasi yuklatilgan bu namunalar, ayni zamonda, mustaqil va tugal asar xarakteriga ham ega. Gap shundaki, ularning har biri o‘z mazmuni, kompozitsion qurilmasi, syujet chizig‘i, obraz-personajlari, tuguni-yechimi, mantiqiy xulosa-yakuni, qisqasi, mustaqil badiiy asar u-n barcha talab-belgilariga ega bo‘lib, shartli ravishda ajratib olinganida ham, ma’lum g‘oyaviy-estetik va axloqiy-tarbiyaviy vazifani bajarib kelmoqda.

M-n, “S.I.” dostonining “Yigitlik bahorining xushlug‘i va bahor yigitligining dilkashlig‘ida gul va bulbuldek barg va navo tuzmak...” jumlalari b-n boshlanuvchi bobga ilova qilingan va n.shunoslikda shartli ravishda “Bulbul va Zog‘”, – deb yuritiluvchi masal xuddi shundaydir. “Bulbul hikoyatikim, aning gulbongidin zog‘ yoliqib... ta’n qildi va aning fasih javobidin o‘zgacha so‘zin bildi”, – deb nasriy sarlavha qo‘yilgan bu masal bahor-gul faslining go‘zalligi va jonbaxsh

xususiyati, fayz-u latofatini madh etuvchi yetakchi bob b-n g‘oyaviy-badiiy birlikni tashkil etadi, natijada dostonning tarkibiy bir qismiga aylanadi. Ayni zamonda, u ayrim holicha masal janrining yetuk bir namunasi hamdir, chunki unda mustaqil asarga xos barcha asosiy komponentlar mavjud va shu jihatdan alohida holida ham tugal mazmun-g‘oyani yetkaza oladi. Bu xususiyat shu dostondagi “Bor ermish burun chog‘da kozibvashe” – misrasi b-n boshlanuvchi besh baytli mo‘jaz masalda ham to‘la yuzaga chiqqan. Dostonning “Tuzluk ta’rifidakim” bobi tarkibida keluvchi bu masalda yetakchi g‘oya – rostlik, to‘g‘rilik, haqgo‘ylik madhi o‘ziga xos bir shaklda aldamchilik, firibgarlikning tanqidi, yolg‘on so‘zlashning xunuk oqibatini namoyish etish orqali davom ettiriladi. Shu b-n birgalikda unda to‘la mustaqil syujet ishlangan, masal janrining bosh talablariga qat’iy rioya qilingan, qissadan hissa chiqarilgan:

Agar qilmadi el himoyat sanga,
O‘zungdin kerakdur shikoyat sanga.

N. “H.A.” dostonining ayrim maqolatlariga ham mustaqil syujetli masallar ilova qilgan. “Rostlik ta’rifiga” bag‘ishlangan o‘ninchi maqolatida, m-n, sofdillik, to‘g‘rilik insonni ulug‘lovchi oliyjanob fazilatlar sifatida ta’riflanadi, va aksincha, egrilik, qalbakilik, yolg‘onchilik kishilik sha’niga dog‘ tushiruvchi illatlar sifatida qoralanadi. Bu yetakchi mavzu va g‘oya maqolatga ilova qilingan va har jihatdan mustaqillik xarakteriga molik holda masalda ham davom ettiriladi. “Durrojning yolg‘onni chin o‘rnig‘a ayturi din hodisa domig‘a tushganida chin so‘zni sher yolg‘on sog‘inib, faryodig‘a yetmagoni va ani balo domidin xalos etmagoni” deb nomlangan bu masalda hayvonot dunyosidan olingan hayotiy lavha vositasida yolg‘onning fojeaviy yakunga olib kelishi namoyish etiladi, asosiy maqolat g‘oyasi yana bir bor tasdiqlanadi. N. masallari (ko‘pgina hikoyat, tamsil, hikmatlarning masal xarakteriga egaligi ham nazarda tutiladi) shoir umumijodi u-n xos bo‘lgan kuchli didaktik-tarbiyaviy yo‘nalish hamda tanqidiy-satirik munosabatning aniq ko‘rinishidir. Yuksak axloqiy tamoyillarni, chin insoniy fazilatlarni, N.ning o‘z ta’biri b-n qisqacha aytganda, “odamiy”likni faol targ‘ib etuvchi didaktika va tanqidiy-satirik yondashuv zaminida ijobiylik madhi va salbiylik inkori yotadiki, bu bosh leytmotiv N.ning masallarining asosiy mag‘zini tashkil etadi. N. masallari faqat xalqchil mazmuni va g‘oyaviy barkamolligi, ibratomuz mohiyati bilangina emas, balki, badiiy-tasviriy vositalarning mukammalligi, ichki pishiq qurilmasi, har bir obraz faoliyatining mantiqiy asoslanganligi jihatidan ham ajralib turadi. Shoir aniq g‘oyaviy maqsad va katta badiiy mahorat b-n ijtimoiy hayot voqea-hodisalarini, jamiyat va kishilikka xos belgi-xislatlarni janrning yetakchi talab-shartlariga to‘la muvofiq holda hayvonot olamiga ko‘chiradi, bu olamning aniq vakillarini “insonlashtiradi”, natijada, Durroj, Sher, Bulbul va Zog‘larning har biri ijtimoiy xarakter darajasiga ko‘tariladi.

N. o‘zining qator yetuk masallari b-n adabiyotimizda bu janrning qat’iylashuvi va rivojlanishiga jiddiy hissa qo‘shdi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Абдуғафуров А. Навоий ижодида сатира. – Т., 1972.*

A.A.

NAVOIY MUHRI – Q: Navoiy dastxati.

“NAVOIY NASRI NAFOSATI” – taniqli n.shunos olima, O‘zbekiston Qahramoni Suyima G‘aniyevaning N.ning nasriy asarlari yuzasidan olib borgan tadqiqotlarini o‘zida jamlagan kitobi (2000). Kitob N. nasrining umumiy manzarasini o‘quvchi ko‘z oldida gavdalantiruvchi so‘zboshi b-n ochiladi. Undan muallifning “M.Q.”, “M.N.”, “M.L.”, “X.M.”, “H.S.H.A.”, “H.P.M.”, “M.”, “V.”, “Munj.” asarlari tahliliga bag‘ishlangan, shuningdek, “Xamsa” sarlavhalari nasr namunasi sifatida o‘rganilgan, shoir nasrida nazmning

o‘rni va N. nasrida muallif qiyofasi kabi masalalarga bag‘ishlangan maqolalari ham o‘rin olgan. Kitobga birgina “M.N.” tazkirasiga bag‘ishlangan 5 ta maqola kiritilgan: tazkiraning tarkibiy tuzilishi, yozilish tarixi, forsiy tarjimalari, uning ta’sirida yozilgan tazkiralar, “M.N.” tazkirasida turkman adabiy muhitiga oid ma’lumotlar. Kitob N. nasrini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ғаниева С. Навоий насри нафосати. – Т., 2000.*

E.O., N.J.

NAVOIY NASRIY ASARLARINING RUS TILIGA TARJIMALARI – N.ning nasriy merosi asarlarining salmoqli qismini tashkil etadi. Bu merosni rusiyzabon o‘quvchilarga yetkazish ham muhim vazifalardan biridir. N. asarlarini rus tiliga tarjima qilishda S.G‘aniyeva, A.Malexova, A.Rustamov, M.Starostin, I.Shamsimuhammedov singari olim va tarjimonlar ishtirok etgan. N.ning 13 ta asaridan 7 tasi rus tiliga o‘girilgan va nashr qilingan. Bular “M.Q.”, “M.L.”, “M.N.”, “H.S.H.A.”, “H.P.M.”, “M.”, “N.J.” asarlaridir.

“M.Q.” tarjimasi A.Rustamov va A.Starostin tomonidan amalga oshirilgan. Umumiy matn A. Rustamov tomonidan, undagi she’riy parchalar A.Starostin tomonidan o‘girilgan. Ushbu tarjimaning katta bir yutug‘i uning asliyatdagi singari saj’ b-n tarjima qilinganidir. Bu hol N. nasrining badiiyatini rus tilida iloji boricha to‘laroq ko‘rsatib berish imkonini yaratgan va tarjimaning ravonligini ta’minlagan. Buni quyidagi parcha misolida ko‘rish mumkin: “Тот, кто много говорит и всегда обжирается, тот в ад скорее попасть собирается. Тот, кто любит говорить и в обжорство влюблен, тот честь и мудрости лишен. Завистник – больной, который из-за губительной болезни жертвует собой.

Развратники и винопродавцы –
это самые вредные наглецы.
Тот, кто злословием живет,
нечистоты жуёт.
Тот, кто опиум и анашу употребляет,
людской облик теряет.
Алчный все время о чужом имуществе
тоскует, и жизнью рискует”.

Tarjimaning yana bir qimmatli jihati uning bevosita asliyatdan o‘girilganidir. Ushbu tarjimani N. nasriy asarlari tarjimalari orasida muvaffaqiyatli chiqqanlaridan biri, deb hisoblash mumkin. N.ning tilshunoslikka doir asari “M.L.”ni rus tiliga A.Malexova o‘girgan. Ma’lumki, bu N.ning eng murakkab asarlaridan biri, zero, unda so‘zlarning turli ma’nolari, ma’no ottenkalari, kam qo‘llaniladigan, faqat o‘sha tilning bilimdonlarigagina ma’lum bo‘lgan so‘zlar bor. Bularning bari tarjimon u-n katta qiyinchiliklar tug‘dirishi tabiiy. Shunga qaramy, A.Malexova bu ishning uddasidan chiqqan. To‘g‘ri, ayrim o‘rinlarda so‘zlar tarjima qilinmay, asliyatdagi so‘zlarning o‘zi berilgan. M-n, N. keltirgan yuzta fe’l rus tiliga o‘girilmagan. Asar tarkibidagi she’rlar she’riy shaklga o‘girilmay, ularning ma’lum mazmuni berilgan.

“M.N.”, “H.S.H.A.” va “H.P.M.” asarlarining rus tiliga tarjimalari S.G‘aniyeva qalamiga mansub. Ushbu tarjimalarning ijobiy jihati sifatida ularda N. asarlaridagi jumla qurilishi va bayon tarzining saqlab qolinganini qayd etish lozim. Eng asosiysi, tarjimon matn ma’nosini aniq va ravshan ifodalashga muvaffaq bo‘lgan. Matndagi she’rlarning mazmuni berilgan. Har uch asar ham rus tiliga qisqartirishlarsiz, to‘liq tarjima qilingan.

“Munj.” asari ham S.G‘aniyeva tomonidan tarjima qilingan. Ushbu asar hajman kichik bo‘lsa ham, N. qalbining o‘y va intilishlarini o‘zida ifoda etgan va juda katta emotsional kuch b-n yozilgan. Tarjimada “M.”ning ana shu xususiyatlari aks etgan, xususan, asarning kuchli, o‘ziga xos pafosi saqlab qolingan: “О, мой Аллах, разве Адам сам по себе удостоился престола без воли твоей, разве это было бы возможным благодаря проделкам шайтана?!”

О, мой Аллах, ты предпределяешь и разврат, и распутство, и благочестие, и набожность, то почему же судишь слабых людей за их пороки?

О, мой Аллах, я нуждаюсь в твоей милости ибо я достоин твоей щедрости, ибо многочисленны мои ощибки и проступки.

О, мой Аллах, если я поведаю свои печали кому либо и он отвергнет меня, то к тебе обращусь я, но если ты отвергнешь то что же мне делать и к кому мне обратиться?!"

N.ning rus tiliga tarjima qilingan asarlaridan biri "V."dir. Uni I.Shamsimuhammedov o'girgan. Tarjimada originalga xos bo'lgan jumla qurilishi, bayon tarzi izchil saqlanmagani ko'zga tashlanadi, xususan, yirik sintaktik birliklar va butunliklar bir nechta jumlalar va gaplarga bo'lib tashlangan holda o'girilganligini ko'rish mumkin. Bu hol asarning muqaddima qismi tarjimasida ko'proq namoyon bo'ladi. Shuningdek, ayrim o'rinlarda jumlalar ma'nosi aniq va to'g'ri ifoda etilmagan.

"M.N.", "H.P.M." va "H.S.H.A." asarlari N. asarlarining rus tilidagi 10 jildlik nashri u-n maxsus tarjima qilingan va chop etilgan. "M.L.", "M.Q." tarjimalari ham 1-marta ana shu 10 jildlik tarkibida nashr etilgan. "M.", "V." tarjimalari keyinroq amalga oshirilgan va alohida nashrlar sifatida chiqqan.

"M." tarjimasi, shuningdek, Moskvada ham nashr etilgan.

Ad.: *А.Навои. Собрание избранных. Жизнеописание Сайида Хасана Ардашера. Жизнеописание Пахлавана Мухаммеда. Собрание сочинений в 10 томах, том 9. – Т., 1970; Алишер Навои Возлюбленный сердец. Суждение о двух языках. Собрание сочинений в 10 томах, том 10. – Т., 1970; Алишер Навои. Мунаджат. – Т., 1991.*

Q.E.

NAVOIY QIT'ALARIDA "FALON" TURKUMI. "Falon" obrazi qo'llangan qit'alar o'zbek mumtoz adabiyoti, xususan, N. ijodining o'ziga xos kashfiyotlaridan biridir. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da falon so'zi quyidagicha izohlangan: 1. Narsa, shaxs yoki voqea-hodisa, ular haqidagi biror xususiyat, belgini aniq bildiruvchi so'zlar o'rnida ishlatiladi. 2. Biror xususiyat yoki hodisaning, jarayonning miqdori juda ortiqligini, yuqori darajada ekanini bildiradi. 3. Odob-axloqqa zid, aytish uyat hisoblangan so'zlar o'rnida qo'llanadi.

Xalq orasida falon kimdir, birov, boshqa bir, qandaydir kabi ma'nolarda ishlatiladi. Bu so'z ko'pincha umumiylik, ko'plik, noaniqlik mazmunlarini ham ifodalaydi. Mumtoz she'riyatda "falon" obrazining yuzaga kelishi va o'rinlashishida falon so'zidan anglashilgan yuqoridagi ma'nolar g'oyatda muhim asos bo'lib xizmat qilgan. N.ning "falon" turkumiga mansub qit'alari haqida adabiyotshunoslikda ba'zi bir fikr-mulohazalar bildirilgan. Prof. I.Haqqulning yozishicha, "…oddiy odamlar orasidan chiqqan "falon" bilan, siyosatda yoki amaldor toifasiga mansub "falon" boshqa-boshqa kimsa: birining yuzsizligi, fitnakorligi va o'jarligi ikkinchisiga aynan o'xshamaydi". Ulug' shoir "falon" turkumida yengil kinoya va o'tkir kesatiq mazmunlarini o'zaro uyg'unlashtirib, jamiyatdagi turli tabaqa va soha kishilarining xarakteri, xatti-harakatlariga xos qusurlarni ayamasdan ochib tashlaydi. Bizningcha, qit'alarida o'z davrining hukmdorlarini (Abusaid Mirzoni eslang) mardona turib tanqid qilgan N. (masalan, "Jahon ganjiga shoh erur ajdaho…", – deb boshlanuvchi yoki "Devoni Foniy"dagi "Ey falon, so'xti xaloyiqro…", – deb boshlanuvchi qit'a) zamonasining qandaydir bir boyi-yu imomi, fisq-fasodchisi-yu kotibining nomini keltirishdan hech qachon qo'rqmagan. Aksincha, bunday kimsalar shunchalik ko'p bo'lishganki, ularning barcha salbiy xususiyatlarini "falon" timsoli vositasida tipiklashtirgan, umumlashtirgan. N.ning "falon" turkumidagi qit'alarini mazmuniga ko'ra quyidagicha tasniflash mumkin:

1) fisq-fujurchi, g‘iybatchi, ig‘vogar “falon”lar qoralangan qit’alar (masalan, “Birov bobidakim, bu saroyin sotib, fisq asbobi tuzdi va bu fisq asbobi bila ul saroyin buzdi” sarlavhali qit’a);

2) fitnakor, g‘alamis, xudbin, odamlar orasiga nifoq solib yuradigan xudparast “falon”lar tanqid qilingan qit’alar (chunonchi, “Fuzul el bobidakim, bor ishga daxl qilurlar va har xorij ishga doxil dururlar” sarlavhali qit’a);

3) baxil, xasis, manfaatparast “falon”lar mazammat qilingan qit’alar (jumladan, “Ashhabning tuvog‘i berkligin temurga o‘xshatqondek o‘zin ham berk ekan jihatdin temurbo‘z debtur” sarlavhali qit’a);

4) mas’uliyatsiz, bilim-saviyasi sayoz, nodon “falon”lar qoralangan qit’alar (masalan: “G‘alat bir kotib bobida qalam surmag-u qorasining g‘alatin yuziga kelturmak” sarlavhali qit’a);

5) ikkiyuzlamachi, munofiq, riyokor “falon”lar tanqid qilingan qit’alar (masalan**,** “Masx bobidakim, masxarayedur betariq takallum surmak” sarlavhali qit’a);

6) jafokor, zolim “falon”lar fosh etib yozilgan qit’alar (masalan: “Ba’zining nesh-u jafosidin nola qilg‘ani va kelsalar, qova olmasa, muxlisni o‘z qocharig‘a havola qilg‘ani” sarlavhali qit’a).

M-n, “G‘alat bir kotib bobida qalam surmag-u qorasining g‘alatin yuziga kelturmak” sarlavhali qit’a:

Falon kotib ar xatni mundoq yozar,
Bu mansabdin ani qo‘parmoq kerak.

Yuzin nomasidek qaro aylabon,
Qalamdek boshin dag‘i yormoq kerak.

Qarodin qarog‘a beribon uloq,
Qalamravdin ani chiqarmoq kerak.

“Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”da g‘alat so‘zi yanglish, xato, sahv, noto‘g‘ri, yolg‘-on deb izohlangan. Sarlavhadan anglashiladiki, qit’a “g‘alat”, ya’ni xato qiluvchi yoki xatni noto‘g‘ri ko‘chiruvchi “bir kotib” haqida nadomat b-n yozilgan. Sarlavhaning ikkinchi qismi (“qorasining g‘alatin yuziga kelturmak”) badiiy sayqal va ifodaning yorqin namunasidir. Aniq-rog‘i, iyhom san’ati talabiga ko‘ra, undan ikki mazmun anglashiladi: qalamning qorasini yuziga surtmoq (1) va aybini oshkor qilib, yuziqora yoki yuzini shuvut qilmoq – uyaltirmoq (2). Aslida, sarlavhadanoq ulug‘ shoir kotiblik ilmini yaxshi o‘zlashtira olmagan, o‘z ishiga o‘ta mas’uliyatsizlik b-n qaraydigan xat sohiblariga so‘z vositasida haqqoniy ko‘zgu tutadi. Qit’adagi “falon kotib”ning axloqiy qiyofasini yanada ravshanroq tasavvur qilish uchun “Mahbub ul-qulub”da berilgan “Kotiblar zikrida” faslidagi mulohazalarga e’tibor qilish kifoya – masala to‘la oydinlashadi. “M.Q.”da xatni chiroyli husnixat b-n yozuvchi kotib haqida mana nima deyilgan: “Xushnavis kotib so‘zga oroyish berar va so‘zlaguvchiga osoyish yetkarur”. Ammo xati chiroyli bo‘lsa-yu, diqqati sust bo‘lsa – xatni turli xatolar bilan yozsa-chi? Ayonki, arab alifbosidagi harflarda nuqtalar ham muhim ahamiyatga ega: kotibning birgina diqqatsizligi so‘zning asl ma’nosiga, xatning mazmuniga zarar yetkazishi, deylik, habib – do‘st so‘zi habis – yaramas, muhabbat kalimasi esa mehnat tarzida o‘qilishi ham mumkin. Bunday xatolarga yo‘l qo‘yadigan kotibga nisbatan ulug‘ shoir juda keskin munosabat bildiradi – uni la’natlaydi: “Xushnavis hamkim, sahvi (xatosi) ko‘p bo‘lg‘ay – ilgi falaj illatig‘a (kasalligiga) jo‘b (mubtalo) bo‘lg‘ay. Ulki, bejo nuqta bila “habib”ni “habis” qilg‘ay va “muhabbat”ni “mehnat” – aningdek habisi mehnatzadag‘a yuz la’nat”. Yomon, badxat, savodsiz kotib xususida bo‘lsa N.ning qarashlari yuqoridagi qit’a mazmunini yana ham to‘ldiradi: “Yamon kotib manzili qalamdonidek choh aro bo‘lsun, qalamidek boshi yaro va yuzi qaro bo‘lsun”. Bunday kotibning jazosi qanday bo‘ladi, deysiz? N. qit’ada shu kabi noshud va no‘noq kotiblarga ham keskin hukm e’lon qiladi. Shoirga ko‘ra, uni kotiblik mavqeyidan tushirish, ya’ni haydab solish, qolaversa, xalq oldida o‘zi yozgan xatolarga to‘la xatdek yuzini qora qilish va “qalam”ning uchini yo‘ngandek

“boshini yor”ish kerak. Faqat shumi? Yo‘q! Bu “qora” ishi – qilmishi uchun “qora” – qattiq jazo berib, ya’ni “qarodin qaroga beribon uloq”, uni “qalamrav”dan – mamalakatdan butkul badarg‘a qilish lozim. Kotibning xatosi o‘quvchini haqiqatdan chalg‘itishi, xat mohiyatini yanglish tushunishga sabab bo‘lishi, kayfiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois qit’aning lirik qahramoni bunday kotiblarga shafqat qilmaydi – o‘tkir tanqid tig‘ini yalang‘ochlaydi. Yuksak badiiy ifoda va ma’noning teranligi faloniy turkumiga oid mazkur qit’aning estetik ta’sirchanligini yanada oshirib, ulug‘ shoirning maqsad-muddaosini yuzaga chiqarishga ko‘mak bergan.

“Falon” turkumidagi qit’alarning hammasida ham “falon” obrazini yaratishda umumlashtirish, tipiklashtirish tamoyiliga tayanilgan deb bo‘lmaydi. Ayrim qit’alarning sarlavhasida “birov” obrazi keltiriladiki, bu ham “falon”ning real, hayotiy bir shaxs ekanini dalillaydi. Jumladan:

“Birov bobidakim, bu saroyin sotib, fisq asbobi tuzdi va bu fisq asbobi bila ul saroyin buzdi”

Faloni mardak ar sotti saroyin,
Demakim, ul saroyin yaxshi tuzdi.
Qilib ikki saroyig‘a ajab ish,
Bu birni sotti-yu ul birni buzdi.

Qit’a fisq-u fujurga yon bergan bir kimsa – “faloni mardak” haqida nafrat va taassuf bilan yozilgan. Ulug‘ shoir parallelizm vositasida maqsad-muddaosini yuzaga chiqarish uchun o‘ziga xos yo‘l tanlaydi: ikki – biri sotilgan, boshqasi yangi barpo etilgan – saroy timsol-tushunchalari orqali “falon”ga munosabatini jonli ifoda etadi. Ikki saroydan ham fosiqqa manfaat yo‘q, ya’ni “Bu birni sotti-yu ul birni buzdi”. Qit’a mazmunini teranroq tushunish uchun “Mahbub ul-qulub”dagi mana bu “tanbeh”ni keltirish o‘rinli bo‘ladi, nazarimizda: “Fisq shumlig‘idin o‘zingni yaxshilardin huratma va yomonlar arosida qotma. Ul shum agarchi aqlg‘a majruhdur, ammo nafsg‘a mahbubdur, agarchi Haq yo‘lida mag‘mumdur, ammo shayton yo‘lida marg‘ubdur”.

Atrofida fisq-u fujur, g‘iybat-u ig‘vo, kizb-u adovat qo‘zg‘ab, ming turfa hiyla-yu nayranglarga usta bo‘lgan shaytonsifat “falon”lardan N. aziyat chekmagan deysizmi? Zulm tig‘ini qo‘lida tutgan, ilon kabi jafo “neshi” – zahrini sanchib olishga har lahza shay turgan ayrim kimsalarning nohaqliklaridan shoir ham chetda qolmagan. Bu mulohazalarimizning tasdig‘i uchun yana “M.Q.” asariga diqqat qaratamiz: “Davr bevafolari javridin dod va dahr behayolari zulmidin fig‘on-u faryod! To olam binosidur bu o‘tg‘a hech kishi mencha o‘rtanmaydur, to bevafolig‘ ibtidosidur bu yoling‘a hech kim mendek churkanmaydur. Zamon ahli bevafolig‘idin ko‘ksumda tuganlar va davron xayli behayolig‘idin bag‘rimda tikanlar, har qaysig‘a raqam uray desam, Ayyub sabri anga vafo etmas va qalam suray desam, Nuh umrida tamomg‘a yetmas. Haq alarg‘a rahm va insof sari tavassul bergay yo bu mahrum jafokashg‘a sabr va tahammul bergay”. Quyidagi qit’ada esa N. ana shunday zulmkor kimsalarning badiiy qiyofasini “falon” timsoli orqali gavdalantiradi:

Manga yetsa ming zulm neshi falondin,
Ilojida holimg‘a hayron qolurmen.
Jafo qilg‘oli qo‘ysa vayronima yuz,
Agar qavlay olmon, qocha xud olurmen.

Umuman, ulug‘ shoirning “falon” obrazi keltirilgan qit’alarida davr, zamon va ijtimoiy muhitning turli ma’naviy, axloqiy masalalariga e’tibor qaratilib, ayrim toifa kishilarning jamiyat hayotiga dog‘ bo‘lib tushadigan g‘ayriinsoniy nuqson-u qusurlari o‘tkir tanqid ostiga olingan. “Falon” turkumidagi qit’alar orqali buyuk mutafakkirning go‘zal ma’naviy dunyosini teranroq kashf etishga, o‘lmas asarlarida ilgari surilgan saxiylik, rostgo‘ylik, mardlik, ochiqko‘ngillik kabi oliyjanob insoniy fazilatlar mohiyatini kengroq anglashga ham yo‘l topiladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1–4-жилдлар. – Т., 2011;*

Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Т., 1983; Ҳаққул И. Касби камол ўзни танишдир. – Т., 2021; Худоёрова М. Алишер Навоий шеъриятида қитъа жанри: Филол.фан.б.ф.док. дисс.. – Тошкент, 2022; Орзибеков.Р. Лирикада кичик жанрлар. – Т., 1976.

M.A

NAVOIY TAXALLUSLI SHOIRLAR – Adabiyotimiz tarixida bir shoirning bir nechta taxallus tanlagani hamda bir nechta ijodkorning bir taxallus b-n ijod qilgani ko‘p uchraydi. Jumladan, turli tarixiy-adabiy manbalardagi ma’lumotlarga qaraganda, N.dan tashqari yana o‘ndan ortiq shoir o‘z she’rlarida “Navoiy” taxallusini qo‘llagan. Tazkiralarda o‘n bitta Navoiy taxallusli shoir nomi qayd etilgan:

Navoiy Mir Alisher (tazkiralarda “Navoiy Chig‘atoy” ham deyiladi).

Navoiy Xurosoniy (Mullo Navoiy). Bu shoir N.ning yaqin zamondoshi bo‘lgan. Chunki bu haqidagi ma’lumot Faxriy Hirotiyning “Majolis un-nafois” tarjimasiga (XVI asrning boshlari) qilgan ilova bobida keltirilgan.

Navoiy mulla Shamsuddin Muhammad (Koshoniy). “Tuhfayi Somiy” (1550) ma’lumotiga qaraganda, shoir XVI asrning birinchi yarmida ijod qilgan. Yaxshi odat va xushnavolikda o‘z davrining yagonasi bo‘lgan.

Navoiy Bobosulton (Qumiy) – darveshona hayot kechirgan. Shoh Abbos Moziy (hokimiyati 1588-1628) ning unga nisbatan e’tiqodi kuchli bo‘lgan.

Navoiy Bofaqiy (XII asr) – Bofaqning qozizodalaridan bo‘lgan. U haqida faqat Oyatiyning “Tarixi Yazd yo otoshkadayi Yazdon” asarida ma’lumot berilgan.

Navoiy Muhammadsharif (Karbal) – XVI asrning ikkinchi yarmida ijod etgan. “Nafois ul-maosir”da yozilishicha, u “... yaxshi tolib ul-ilm va sho‘xta’b, javonliqda sohibi husnlardin ziyoda va misli yo‘q erdi. Hindustong‘a kelib, hazrati oliyning (ya’ni Akbarshohning) altofi oliylaridin mumtoz va sarafroz bo‘ldi...”. Akbarobodda vafot etgan.

Navoiy Pirzoda – bu haqida “Nafois ul-maosir” asarida shunday ma’lumot beriladi: “Sabzavoriydur. Latif ta’b va zarifva’zlig‘i yaxshi hol paydo qilg‘on. Fanni musiqiyda tamom mahoratli bo‘lg‘on va ruhafzo nag‘malaridan joni ko‘ngulning quvvati ziyoda bo‘lur erdi. Sana to‘qqiz yuz yetmish beshda (1567) Lohurda baland makonli Mirmuhammadxonning majlisida hodisa shamolining asaridin bir devor boshining ustiga tushub, hayotining naqdi fanoning shamoli bila sovrildi…”

Navoiy Abdussame’ (Sindiy). Bu shoirning nomi faqat Tataviyning “Maqolot ush-shuaro” (XVIII asrning ikkinchi yarmi) tazkirasida eslatilgan.

Navoiy Sheroziy (Mirzo Muhammad Munshiy). Bu shoir haqida XIX asr oxirida tuzilgan uchta tazkira (“Forisnomayi Nosiriy”, “Osori Ajam”, “Mir’ot ul-fasohat”)da ma’lumot berilgan.

Navoiy Nishopuriy. XVI asrda yashagan bu shoir haqida Roziyning “Haft Iqlim” asarida so‘z yuritilgan.

Navoiy Mozandaroniy (Mirzo Muhammad Toqiy) Fors va Xuroson o‘lkalarida hukmdorlik qilgan. U bir qator ilmda dono, hunarda esa mohir bo‘lgan. Muhammadshoh Qojor (hukmronligi davri 1779 – 1797-yy.)ning insho devonini mahorat b-n ko‘chirgan. Tazkiralarda uning she’rlaridan namunalar keltirgan.

Tazkiralarda zikr etilgan shoirlarning barchasi (N. mustasno) forsiynavis bo‘lib, Markaziy Osiyodan tashqarida yashab, ijod etgan. Keyingi asrlarda Markaziy Osiyoda tuzilgan bayozlarda N. uslubidan uzoq, ammo N. taxallusli g‘azallar talaygina. Hatto ularning ayrimlariga o‘zbek shoirlari taxmis ham qilganlar. Shuningdek, qo‘lyozma bayozlarda N. taxallusi qo‘yilgan forsiy g‘azallar guruhi ham uchraydi. Bunday she’rlarning haqiqiy muallifi aniqlansa, N. taxallusli shoirlar ro‘yxati yana kengayishi mumkin. Lekin mazkur taxallusli birorta shoir o‘z ijodining miqyosi va mohiyati jihatidan N. b-n musobaqalasha olmaydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Доктор*

Хайёмпур. Фарҳанги суханварон. – Табриз, 1340; Исҳоқов Ё. Навоий тахаллусли шоирлар. Фан ва турмуш. № 2, 1986.

Y.I.

NAVOIY – TUYUQNAVIS Turkiy adabiyotning ichki imkoniyatlari asosida shakllangan janrlardan biri tuyuq hisoblanadi. Tuyuq so‘zining o‘zagidagi tuy so‘zi omonimlik xususiyatiga ega bo‘lib, his qil, bog‘la kabi ma’nolarni anglatadi. Adabiy termin sifatida esa 4 misradan iborat ramal bahrida yoziladigan o‘ziga xos qonun-qoidalarga ega bo‘lgan she’r tushuniladi. Mutaxassislar fikricha, tuyuqning paydo bo‘lish ildizlari xalq og‘zaki ijodiga borib taqaladi. Tuyuqni kitobxon u-n boshqa to‘rt misrali she’rlardan ajratib turadigan asosiy xususiyat – unda so‘z o‘yinlari, ya’ni tajnisdan mohirona foydalanish imkoniyatining mavjudligidir. So‘zning o‘ziga xos sehri, ma’no tovlanishlari, ayniqsa, shakldosh so‘zlarning turli ma’no anglatish xususiyati N.ni ham o‘ziga jalb etib kelgan. Shoir tuyuq janriga xos so‘z o‘yinlari imkoniyatidan ustalik b-n foydalangan. Shoir ijodida o‘n uchta tuyuq mavjud bo‘lib, ular N. badiiy mahoratining o‘ziga xosligi namunalaridir.

Yo rab, ul shahd-u shakar yo labdurur,
Yo magar shahd-u shakar yolabdurur.
Jonima payvasta novak otqali,
G‘amza o‘qin qoshig‘a yolabdurur.

Tuyuq an’anaviy mavzuda yaratilgan. She’rning 1-baytida ma’shuqaning lablari madh etilib, ular shirinlikda shakar va asalga qiyoslanmoqda. Aynan tuyuqni yuzaga chiqarayotgan “yo labdurur” va “yolabdurur” so‘zlari tajnis ko‘rsatkichi hisoblanadi. Dastlabki misrada bu so‘z “labdir” mazmunini ifodalagan bo‘lsa, ikkinchi qatorda “yalabdimikan” tarzida kelgan. Lirik qahramon bilib, bilmaslikka olib, hayratlangan holda murojaat qiladi: “Yo Rab, u – asalmikan, shakarmikan yoki labmikan? Yoki asal b-n shakar yalaganmikan”. Uchinchi misraga kelib, ifoda kiprik va qosh tasviriga o‘tadi. Novak – kamonning o‘qi ma’nosini anglatadi. Ko‘chma ma’noda kipriklarga nisbatan ham qo‘llanadi. G‘amza esa – ma’shuqaning ishva b-n kiprik suzib boqishi. Bu yerda go‘yo qosh ostidagi kipriklar oshiqqa otish u-n terib qo‘yilgan kamon o‘qlariga o‘xshatilgan: “Mening jonimni azoblash maqsadida yorim noz-u karashma o‘qlarini qoshlariga yoylabdimi?”. Tuyuqning mukammal, janr talablari darajasida chiqishiga nido, tajohuli orifona kabi badiiy tasvir vositalari ham sabab bo‘lgan. Umuman, shoir tuyuqlarida tajnis b-n birgalikda yana boshqa she’r san’atlarini ham mahorat b-n qo‘llaydiki, ular she’rning mazmunan teranligi va badiiy barkamolligini ta’minlashga xizmat qiladi. Bu jihatdan quyidagi tuyuq yanada o‘zgacha joziba kasb etadi:

La’lidin jonimg‘a o‘tlar yoqilur,
Qoshi qaddimni jofodin yo qilur.
Men vafosi va’dasidin shodmen,
Ul vafo, bilmonki, qilmas yo qilur?

Mazkur she’r ham ishqiy mavzuda yozilgan. Unda tasvirlanishicha, oshiq ma’shuqaning labi va qoshlari maftuni. Shu sababli uning joni azobda. La’lday qip-qizil lablar oshiqdagi ishq olovini borgan sari kuchaytirayotgan bo‘lsa, qop-qora qoshlar esa qaddining jafodan egilishiga sabab bo‘lmoqda. Navbatdagi misrada oshiqning ma’shuqa vafosi haqidagi va’dasidan mamnunligi to‘g‘risidagi qarashlar ifodalangan bo‘lsa, so‘nggi misrada bu va’daga ishonchsizlik holati ham yo‘q emasligi tasvirlangan. Bu fikrlar so‘z o‘yini asosida yaratilgan bo‘lib, uni yuzaga chiqarayotgan omil “yoqilur” va “yo qilur” so‘zlari hisoblanadi. Dastlabki misrada u “olov yoqilur”, ikkinchisida qaddi-qomatning egilishi ma’nosini ifodalaydigan arab yozuvidagi “yo” harfini, oxirgi misrada esa “yoki bajaradi” degan mazmunni bildiradi.

Necha dedim ul sanamg‘a: Bormog‘in,
Qilmadi ul tark oxir bormog‘in.

Munchakim xudroyliq ko‘rguzdi ul,
Aql hayrat qildi, tishlab bormog‘in.

Tuyuq muhabbat mavzusida bitilgan bo‘lib, undagi tajnis “bormog‘in” so‘zining har xil ma’nolariga asoslangan. Ilk misrada tajnis qilingan so‘z “bormagan” mazmunini ifodalagan bo‘lsa, keyingisida “bormog‘ini, ya’ni borishini” ma’nosida qo‘llanilgan: “Ul sanamga necha marta o‘sha joyga bormagin deb ta’kidlagan bo‘lsamda, u bu odatini, ya’ni borishini aslo tark etmadi”. So‘nggi misrada shoir tajnis hosil qilayotgan so‘zning “barmog‘ini” degan ma’nosidan samarali foydalanganligini kuzatish mumkin: “Sanamning bunchalik o‘jarligidan lirik qahramon aqlan shoshib, barmog‘ini tishlab qoldi”.

Shoir ijodida ikki misrasida tajnis qo‘llanilgan tuyuqlar ham uchraydi. Tuyuqning bu ko‘rinishida ijodkor 2 va 4-misralarda so‘z o‘yinidan foydalanadi:

Vah, qachong‘a tegru ishqing kojidin
Ko‘zuma har lahza o‘t chaqilg‘usi.

Basdur ko‘nglumda ishqing, yoqma o‘t,
Kim harorat ul ham o‘tcha qilg‘usi.

Ko‘rinadiki, she’rda oshiqning o‘ziga xos “nolishi” aks etgandek, go‘yo, u ishq dardidan charchaganday nola qiladi: “Voh, qachongacha ishqing ta’siridan har lahza ko‘zimda o‘t chaqnaydi”. 3-misrada lirik qahramon ishq sinovlariga bardosh berolmaydigandek taassurot uyg‘otadi, so‘nggi misra uning nega bunday yo‘l tutayotganligining sababini yuzaga chiqaradi: “Bo‘ldi, bas, ko‘nglumda ishqing olovini boshqa yoqmagin, chunki yuragimdagi ishqning harorati olovnikidan kam emas”.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011.*

Muz.M.

“NAVOIY UMRIN O‘TKARDI...” – N. ning “F.K.” devoniga kiritilgan qit’a:

Navoiy umrin o‘tkardi mashaqqat birla olamda,
Umidi buki, ul olamda topqay komronlig‘lar.

Agar kofiri muflis masallik topmadi kome,
Va lekin nafsi chun kofir edi, qildi yomonlig‘lar.

Gar ul olamda Haq fazl etmasa-yu adl ila so‘rsa,
Anga, bas bo‘ldi zoyi’ muncha chekkan
notavonlig‘lar.

Donishmand adiblarning hukmlariga qaraganda, dunyoda har bir narsaning maxsus o‘lchovi bo‘lganidek, nafs ham o‘z o‘lchovlariga ega. “Inson fazl-u kamolining o‘lchovi nafsning o‘lchovi ila o‘lchanur”, – degan ekanlar Ibn Sino. Ayniqsa, fozil odamning nafsga munosabati chuqurdir. Uning ma’naviy fazilatlari nafs o‘lchovlari oldida doimo kamlik qiladi. Va u buni yashirmaydi. Sir saqlashdan ne foyda? Axir, bekitish qusur va gunohdan qutulish chorasi emas-ku! N. qit’asining ilk bayti o‘qilganda hali bunday mushohadalar tug‘ilmaydi. Unda bobomiz umrlarini bu olamda mashaqqat birla o‘tkazganliklari va “ul olamda” tinchlik hamda farog‘at topmoq umidida ekanliklarini aytadilar. Umuman olganda, u kishining shunday umid b-n o‘zlarini yupatmoqlariga asos ham bor. Axir, u “kofiri muflis masallik”, ya’ni imonsizlik pastkashlik b-n hech bir maqsadga intilmagan. Ammo bunda bir “Va lekin...” bor. Uning nafsida “kofir”lik bo‘lgan. U hamisha ham nafsi zolim yomonliklarini yenga olmagan. Buni xalq nazaridan yashirish mumkindir. Biroq “Gar ul olamda” hamma narsani adl-u adolat b-n so‘rovdan o‘tkazib, Yaratgan hech nimani afv etmasa-chi? Unda nima bo‘ladi? Shuncha chekkan notavonlik ranjlari ham besamar ketadi. Demak, inson butun umri davomida nafs zulmi, nafs razolatlariga qarshi turishi kerak. Bu qarshilik ma’naviy-ilohiy osudalikning bosh garovlaridan biridir.

Ad.: *Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011.*

I.H.

NAVOIY SHAJARASI N. ajdodlari haqida kam ma’lumot saqlanib qolgan. Xondamirning “Habib us-siyar” asarida ta’kidlanishicha, N.ning ota-bobolari qadimdan Amir Temurning o‘g‘li Umarshayx xonadonining yaqin kishilaridan bo‘lgan. Mirxondning “Ravzat us-safo” (“Soflik bog‘i”) asarida qayd etilishicha, N.ning ota tomonidan bobosi Amir Temurning ikkinchi o‘g‘li Umarshayx Mirzo b-n emikdosh edi. N.ning otasi G‘iyosiddin Kichkina (Kichkina Baxshi, Kichkina Bahodir, Amir Kichkina) o‘z zamonasining mashhur kishilaridan bo‘lib, chig‘atoy ulusining ulug‘laridan hisoblangan. Uning obro‘-e’tibori Abulqosim Bobur saroyida oshib borgani u-n Sabzavor hokimi etib tayinlangan.

N. otasining nomini hurmat yuzasidan aytmay, ko‘pincha, “Faqirning volidi”, deb tilga oladi: “Shohrux sulton buzug‘lig‘ida faqirning volidi jamoati kasir bila...” N.ning onasi haqida manbalarda ma’lumotlar uchramaydi. Shoir hurmat yuzasidan yoki ehtiyoj tug‘ilmaganidan bo‘lsa kerak, onasining nomini biror yerda eslamagan.

N.ning ona tomonidan bobosi Abu Saidchang ham Temurning nabirasi Mirzo Boyqaro binni Umarshayx devonida ulug‘ amirlardan biri edi. Mirzo Boyqaro esa Husayn Boyqaroning akasi bo‘lgan, N. uni “M.N.”da zikr qilib o‘tgan.

Abu Saidchangning o‘g‘illari Mir Said Kobuliy va Muhammadali G‘aribiy N.ga tog‘adir, ular Hirot adabiy-siyosiy muhitida ham ma’lum mavqe’ga ega bo‘lishgan. Turkiy va forsiy tillarda she’rlar yozishgan. Ikkalasi ham Sulton Abu Said Mirzo tarafidan o‘ldirilgan. Mir Said – el orasida “Kobuliy” laqabi b-n mashhur bo‘lgan. N. “M.N.”da: “Faqirg‘a tag‘oyi bo‘lur. Yaxshi tab’i bor erdi. Turkchaga mayli ko‘proq erdi..”, – deydi. Muhammad Ali ham “G‘aribiy” taxallusi b-n she’rlar yozgan. Mir Said Kobuliyning ukasi. N. uni “Xush muhovara, xush xulq va xushtab’ va dardmand yigit”, – deb ta’riflaydi. N.ning dafn marosimida qatnashgan Hasan Ali Jaloyirni ba’zi olimlar N.ning tog‘asi bo‘lgan deyishadi. Bobur bu kishining asl nomi Husayn Ali Jaloyir ekani, “Tufayliy” taxallusi b-n ijod qilgani va boshqa ma’lumotlarni ham keltirib o‘tadi. Lekin N.ga qarindoshligi haqida hech nima demaydi. N.ning o‘zi ham “M.N.”da bu odam haqida ma’lumot berar ekan, o‘ziga biror yaqinlik va bog‘liqlik tomoni borligini aytmaydi. Odatda N. “M.N.”da o‘ziga qarindosh bo‘lgan odamlarni, albatta, aytib o‘tgan. Bizningcha, ilmda bu masalaga oydinlik kiritilishi kerak. Shayx Bahlulbek N.ning ota bir, ona boshqa akasi. Darveshali esa ukasi bo‘lgan. Bundan tashqari, N. b-n Astrobodda birga bo‘lgan Amir Haydarni shoirning o‘gay ukasi sifatida taqdim etuvchi ma’lumot ham bor.

N.ning oila qurmagani va avlodi bo‘lmagani ma’lum. Bobur “Boburnoma”da “O‘g‘ul va qiz va ahl-u ayol yo‘q, olamni tavre fard va jarida o‘tkardi”, – deb aniq ma’lumot bergan. Lekin N. ning farzand saqlagani va ko‘p kishilarga mehr-muhabbat ko‘rsatgani ishonchli manbalardan ma’lum. Ulardan biri akasi Shayx Bahlulning nabirasi (Kamoliddin Sulton Husayn o‘g‘li) Mir Ibrohimdir. N. uni “faqirning og‘asining nabirasidur. Faqir oni o‘g‘ilchilay asrabmen”, – deydi. Mir Haydarning taxallusi “Sabuhiy” bo‘lgan. Aslida N.ning tog‘asi Mir Said Kobuliyning o‘g‘li bo‘lgan bu odam yuqorida “o‘gay ukasi” sifatida eslatib o‘tilgan Amir Haydar b-n bir shaxs. N. “M.N.”da bu shaxsni “faqirg‘a shiddati qarobatdin farzandlig‘ nisbati bor”, – deb aytadi. Xondamir Amir Kamoliddin Sulton Husayn degan bir shaxsni ham N.ning tutingan o‘g‘li sifatida tilga oladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик. 9-жилд. – Т., 2011; Ўзбек адабиёти тарихи. 5 жилдлик, 2-жилд. – Т., 1977; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 2002; Амир Алишер (Навоий). Шарҳи аҳвол ва осори Фоний. – Покистон (Исломо-*

бод). 2005; Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Т., 2015; Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий: манбаларнинг қиёсий, текстологик таҳлили. – Т., 2011; Алишер Навоий: Қомусий луғат. 1–2-жилдлар. – Т., 2016.

S.R.

NAVOIY SHAHRI – N. viloyatidagi shahar. Viloyatning ma'muriy, iqtisodiy va madaniy markazi. O'zbekistonning janubi-g'arbida, Zarafshon daryosi vodiysida, viloyatning sharqiy chekkasida, 347 m balandlikda joylashgan. Temiryo'l stansiyasi, avtotransport yo'llarining muhim tuguni, Toshkentdan 509 km. Iqlimi kontinental, yillik o'rtacha temperatura 15°, iyulniki 28,3°, yanv.niki 0,4°. Maydoni 60 km². N.Sh. tarkibida Karmana tumani bor. N.Sh. Zarafshon vodiysidagi tez o'sayotgan, yosh industrial shahar, buyuk o'zbek shoiri N. nomiga qo'yilgan. Zarafshon daryosining yaqinligi, yirik qishloq xo'jaligi hududning markazida joylashgani, transport b-n yaxshi ta'minlangani shaharning tez o'sish omili bo'ldi. N.Sh. Markaziy Osiyoda yirik elektr energiya va kimyo sanoati markazi hisoblanadi. N.Sh.da 20 dan ziyod yirik sanoat korxonasi mavjud. Viloyat sanoat korxonalari yalpi mahsulotining ko'p qismi N.Sh.da ishlab chiqariladi. Shaharda xorijiy mamlakatlar b-n hamkorlikda qurilgan ko'plab qo'shma korxonalar faoliyat ko'rsatadi. Shahar orqali Uchquduq, Buxoro, Nukus shaharlariga boruvchi temir yo'l o'tgan. Navoiy Xalqaro aeroporti shaharni Toshkent shahri, respublika viloyatlari va xorijiy davlatlar b-n o'zaro aloqalar o'rnatishida xizmat qiladi. Sarmish darasi N.Sh.dan 45 kilometr uzoqlikda joylashgan va u "dunyodagi eng katta tosh devorlar galereyasi"dir.

N.Sh.da bir qator oliy o'quv yurtlari, jumladan, Navoiy davlat pedagogika universiteti, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti, nodavlat oliy ta'lim muassalari, umumiy ta'lim maktablari, litseylar, muzey (Navoiy viloyat o'lkashunoslik muzey, madaniyat saroylari (Farhod madaniyat saroyi, Shirin madaniyat saroyi, Navro'z madaniyat saroyi), madaniyat va istirohat bog'lari, kutubxonalar, stadionlar (So'g'diyona markaziy stadioni, Kimyogar markaziy stadioni, Yoshlar sport majmuasi markaziy stadioni), suzish havzalari, kasalxonalar, poliklinikalar, shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish markazlari faoliyat ko'rsatadi. N. tavalludining 560 yilligi munosabati b-n N.Sh.da Alisher Navoiy nomli istirohat bog'i ochilib, u yerda Alisher Navoiy haykali o'rnatildi (2001). Har yili fevral oyida N. tavalludi munosabati b-n yirik n.xonlik tadbirlariga mezbonlik qiladi. Jumladan, shoirning 580 va 585 yillik yubileylari N.Sh.da ko'tarinki ruhda nishonlandi. (2016, 2021)

Ad.: *ЎзМЭ. 2-жилд. – Т., 2003.*

M.A.

NAVOIY HAQIDA RIVOYATLAR

Ma'lumki, mashhur kishilar hayoti turli afsona-yu rivoyatlarda keladi. Ularda tarixda o'tgan buyuk shaxslar ulug'lanadi, go'zal fazilatlari va ezgu ishlari ibrat qilib ko'rsatiladi. N. haqida ham xalq tasavvuri va to'qimasi mahsuli bo'lgan ko'plab rivoyatlar yaratilgan. Bu rivoyatlarda uning zabardast shoir va xalqparvar davlat arbobi sifatidagi siymosi bo'rtib ko'rinadi. Albatta, ularning ba'zilari muayyan tarixiy asosga ega bo'lsa, ba'zilarining shoir shaxsiy hayotiga mutlaqo aloqasi yo'q. Xalq sevimli shoiriga beqiyos mehr-u muhabbat, sidq-u ixlosi ifodasi bo'lgan bu namunalarda o'zining yuksak orzu-ideallarini xayoliy va to'qima obrazlarda mubolag'ador va balandparvoz uslubda betakror sifatlar va go'zal tashbehlar b-n aks ettirgan. Ular og'izdan og'izga o'tib, bizgacha yetib kelgan.

Xalq orasida tarqalgan N. haqidagi rivoyatlar S.Abdulla, R.Yusuf o'g'li, M.Afzalov, M.Murodov, N.Soburov, B.Karimov, M.Jo'rayev kabi folklor fidoiylari tomonidan yozib olinib, ulardan namunalar dastlab turli to'plamlar, jumladan, "Oltin olma", "O'zbek xalq ertaklari" kabi ertak kitoblari tarkibida e'lon qilingan. Keyinchalik ular M.Murodov, Z.Husainova, T.Mirzayevlar

tomonidan mo‘jaz so‘zboshi b-n alohida kitobcha holida nashr etildi. 1991-y.da esa ulug‘ shoir tavalludining 550 yilligi munosabati b-n M.Jo‘rayev uning to‘ldirilgan nashrini amalga oshirdi. “El desa Navoiyni...” deb nomlangan ushbu to‘plam 2 qismdan iborat bo‘lib, “Alisher bilan bulbul” deb nomlangan 1-qismida shoir haqidagi 54 ta o‘zbek xalq rivoyati, “Hozirjavob Mirali” nomli ikkinchi qismida esa o‘ndan ortiq turkman xalqining N. haqidagi rivoyatlari o‘rin olgan. Holbuki, “Dono Alisher” deb nomlangan oldingi to‘plamdan boryo‘g‘i 19 ta rivoyat o‘rin olgan edi.

N. haqidagi rivoyatlarning bir qismi yozma adabiyot mahsuli bo‘lib, ular Xondamirning “Makorim ul-axloq”, Vosifiyning “Badoye’ ul-vaqoye’”, Boburning “Boburnoma” singari asarlari orqali yetib kelgan.

Ad.: *Хондамир. Макорим ул-ахлоқ (П. Шамсиев тарж.). – Т., 1948; Восифий З. Бадоеъ ул-вақоеъ. – Т., 1979; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 2002; Доно Алишер (Алишер Навоий ҳақида халқ афсоналари (Тузувчилар: М.Муродов, З. Ҳусаинова, Т.Мирзаев). – Т., 1908; Эл деса Навоийни (Ҳазрат Мир Алишер Навоий ҳақида ривоятлар). Тўплаб нашрга тайёрловчи М.Жўраев. – Т., 1991; Шарқ ҳикоят ва ривоятлари (нашрга тайёрловчи Э.Очилов). – Т., 2013; Донолар суҳбати. Ҳикоят ва ривоятлар олами (тўпловчи Э.Очилов). – Т., 2013.*

E.O.

“NAVOIY HIKMATLARI” – shoirning turli asarlari ichidan tanlab olinib, bir necha marta alohida to‘plam shaklida e’lon qilingan hikmatli so‘zlari. N. asarlari, yaxlit olganda, hayot qomusiga o‘xshaydi. Chunki biror-bir hayotiy masala, insonga xos qadriyat va tuyg‘ular, fazilat va illatlar yo‘qki, u qalamga olmagan bo‘lsa. Aytaylik, ota-onaning farzand hayotidagi o‘rni va farzandning ota-ona oldidagi burchi haqida shunday yozadi:

Boshni fido ayla ato qoshig‘a,
Jismni qil sadqa ano boshig‘a.
Tun-kunungg‘a aylagali nur fosh,
Birisin oy angla, birisin quyosh.

Maz.: Otangning qoshiga boshingni fido, onangning boshiga jismingni sadqa qil. Birini tuningni yoritadigan oy, ikkinchisini kuningni charog‘on etadigan quyosh deb bil.

N. ustoz va shogird munosabatlari xususida fikr yuritar ekan, “Haq yo‘lida kimki mashaqqat chekib, senga birgina harf o‘rgatgan bo‘lsa, yuz xazina boylik b-n ham uning haqini ado etolmaysan”, – deydi:

Haq yo‘linda kim senga bir harf o‘qutmish
ranj ila,
Aylamak bo‘lmas ado oning haqin yuz ganj ila.

Bu – ustoz va shogird munosabati to‘g‘risidagi shoirning falsafiy xulosasi. Darhaqiqat, ustozning maqomi buyuk – uni hech narsa b-n tenglashtirib bo‘lmaganidek, ustoz oldidagi shogirdlik qarzini ham ikki dunyoda uzib bo‘lmaydi. Ustoz otangdan ulug‘, degan maqol bejiz aytilmagan. Bir donishmanddan buning ma’nosini so‘raganlarida: “Chunki otam meni ko‘kdan yerga tushirgan bo‘lsa, ustoz yerdan yana ko‘kka ko‘tardi”, – deb javob bergan ekan. Yoshlarga qarata esa shunday deydi:

Yigitlikda yig‘ ilmning maxzani,
Qarilik chog‘i sarf qilgil ani.

Mutafakkir shoir insonlik mohiyatini uning ijtimoiy faoliyatida – jamiyatga foydali kasb b-n shug‘ullanishi, xalqqa manfaati tegishi, odamlarning og‘irini yengil qilishida deb biladi. Uning xalq g‘amini o‘z g‘ami deb bilmaydigan odamni odam qatoriga qo‘shmasligi bejiz emas:

Odamiy ersang, demagil odami
Onikim, yo‘q xalq g‘amidin g‘ami.

Bu – N.ning inson haqidagi qarashlari tizimida eng muhim nuqta. Zero, shoirning o‘zi ham xalqqa qancha ko‘p foydang tegsa, bu narsaning

o‘zingga foydasi ko‘proq, degan aqida b-n yashagan:

Naf’ing agar xalqqa beshakdurur,
Bilki, bu naf’ o‘zungga ko‘prakdurur.

N. ijodi abadiy barhayotligining siri shundaki, u azaliy va abadiy mavzularni yuksak mahorat b-n qalamga olgan: muhabbat, vafo, do‘stlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, halollik, mardlik, saxovat, qanoat, adolat, oliyjanoblik, yaxshilik kabi insoniy fazilatlarni ulug‘lagan bo‘lsa, yomonlik, zulm-zo‘rlik, nohaqlik, e’tiqodsizlik, bevafolik, dilozorlik, hasad, riyo, kibr, yolg‘on, tama, xasislik singari illatlarni keskin tanqid qilgan. Insoniyat jamiyati mavjud ekan, bu ijobiy va salbiy xususiyatlar u yoki bu darajada yashaydi. Binobarin, N. kabi hassos shoirlarning ezgulikni ulug‘lash, yovuzlikni qoralashga yo‘naltirilgan asarlari hamma davrlarda ham jamiyat manfaatlariga birday xizmat qilaveradi.

N. ko‘p qirrali teran fikrlarni lo‘nda va aniq shaklda ifodalaydi, o‘z fikrining ta’sirchanligini oshirish u-n hayotiy tashbehlar topadi. Fikr, narsa va holatni o‘xshashiga nisbat berish, yo ziddiga qiyoslash orqali ibratli xulosa chiqaradi. M-n:

Sen agar tarki tama’ qilsang, ulug‘ ishdur bukim,
Olam ahli barcha bo‘lg‘ay bir taraf, sen bir taraf.

Bu yerda shoir o‘z fikrini qarama-qarshi qo‘yish – tazod san’ati orqali ifodalamoqda: hozir butun dunyo tama quliga aylangan, agar sen tamani tark etsang, olamdagi barcha odamlar bir taraf-u sening yolg‘iz o‘zing bir taraf bo‘lasanki, bu nihoyatda ulug‘ ishdir.

Quyidagi hikmat esa tashbeh – o‘xshatish asosiga qurilgan: bir siniq ko‘ngilni ko‘tarish Ka’bani obod qilishga tenglashtiriladi:

Kimki bir ko‘ngli buzuqning xotirin
shod aylagay,
Oncha borkim, Ka’ba vayron bo‘lsa,
obod aylagay.

Bu tasavvufdagi ko‘ngilni ulug‘lash an’analariga borib taqaladi. Ko‘ngilning hamma narsa, hatto Ka’badan ham ustun qo‘yilishining sababi shundaki, tasavvufda Allohdan keyin ko‘ngil turadi. To‘g‘ri, Ka’ba –Allohning uyi, lekin u zohiriy, ramziy uy, uning haqiqiy uyi – insonning ko‘ngli. Dunyo va nafs g‘uborlaridan poklangan, ko‘zguday musaffo holga kelgan ko‘ngilda Alloh jamoli jilvalanadi. Shuning u-n ham Umar Xayyom loydan bino qilingan yuzta Ka’ba bitta ko‘ngilning o‘rnini bosolmaydi, degan. N. ham “H.A.” dostonida olamning qiblasi bo‘lishiga qaramay, Ka’baning ko‘ngil ka’basichalik qadri yo‘q, deb luft etadi:

Ka’baki, olamning o‘lub qiblasi,
Qadri yo‘q andoqki, ko‘ngul ka’basi.

Quyidagi bayt esa “Har narsaning qazosi bor, ammo fursatning qazosi bo‘lmas” yoxud “Hozirgi vaqtingning qadrini bil” so‘zlarini eslatadi:

Moziy-u mustaqbal ahvolin takallum
ayla kam,
Ne uchunkim, dam bu damdir,
dam bu damdir, dam bu dam.

N.ga ko‘ra inson u-n umidni yo‘qotish katta yo‘qotishdir. Inchunun, hikmatlarining birida “Ey do‘stlar, menga hamma narsadan umidingni uz, voz kech deyishingiz mumkin, ammo zinhor Yaratguvchidan umidingni uz demangiz” mazmunida shunday deydi:

Ahbob, dengizki, xon-u mondan tama’ uz,
Ne xon-u mon, kavn-u makondan tama’ uz.
Ne kavn-u makon, jon-u jahondan tama’ uz,
Lekin demangiz, meniki, Ondin tama’ uz.

Ushbu ruboiyda “Allohning rahmatidan umid uzmang” oyati karimasining mazmuni singdirilgan.

N. olam va odam mohiyati haqida ko‘p bosh qotirgan, tiriklik va o‘lim sabablari ustida muttasil mulohaza yuritgan, inson hayotining maqsadi,

ma’no-mazmuni xususida bir umr o‘ylagan, tabiat va jamiyat sirlarini o‘zicha yechishga intilgan. Uning chuqur bilim, keng dunyoqarash, katta hayotiy tajriba, olimona teran tafakkur va shoirona o‘tkir nigoh b-n uyg‘unlashgan fikr-mulohazalari, falsafiy xulosalari hikmat kabi jaranglashi shundan. Chunonchi, shoir olamning yaratilishi to‘g‘risidagi ko‘p yillik mushohadalarining natijasi sifatida dunyoda bir qil ham behuda yaratilmagan, basharti, men unda biror xato ko‘rsam, bu olamning nomukammalligidan emas, balki mening nuqtayi nazarimning xato ekanligidandir, degan teran va haqqoniy bir fikrni bayon etadi:

Bu korgahda xato kelmadi chu bir sari mo‘y,
Xato mening nazarimdandur, xato ko‘rsam.

Dunyo otliq Yosuman harchand Farhoddek asl odamlarni juvonmarg qiluvchi bo‘lmasin, Xusrav kabi nokaslar ham undan vafo umid qilishi xatodir, chunki hayot tegirmoni navbati b-n yaxshini ham, yomonni ham o‘z komiga tortadi:

Dahr zoli nechakim Farhodkushdur, turfa ko‘r
Kim, xatodur tutsa gar andin Parvez ko‘z.

Bu yerda “F.Sh.” dostonidagi Farhodning Xusrav yollagan Yosuman makri b-n o‘ldirilganiga ishora qilinyapti. Holbuki, Xusravning quvonchi ham uzoqqa bormaydi – Shirinning vasliga yetolmay, o‘g‘li Sheruya tomonidan o‘ldiriladi. O‘z navbatida, padarkush Sheruya ham olti oy o‘tmay, ajal sharbatini totadi. Xalqdan boshingga har qancha jabr-u jafo yog‘ilmasin, men u-n boshqa xalq yarat, deyish joiz emas, chunki yer-u ko‘kning Parvardigori nimani qanday yaratishni o‘zi biladi. Ayni nuqtayi nazardan qaraganda, dunyo mukammal emas, deyish ham qaysidir ma’noda Yaratuvchiga ta’na qilish hisoblanadi, bunday harakatning gunoh ekanligi shubhasiz. Avval-u oxirni bilguvchi ulug‘ Zot dunyoni hozirgi holatida yaratibdimi, shuni ma’qul ko‘rgan – bunda Xudoning nimani ko‘zda tutganini ertaga ne bo‘lishini bilmaydigan bandalar qayerdan bilsin:

Xalqdin har yaramas kelsa, xush ulkim, Haqg‘a
Desa bo‘lmas, mening uchun yana bir xalq yarot.

N. umrni shamolga o‘xshatadi: har qancha yugurib, shamolga yetib bo‘lmagani singari, shiddatli umr oqimini ham to‘xtatib turish mumkin emas. Shunday ekan, qo‘lingdan kelgancha uni shod-xurram o‘tkaz, toki so‘nggi lahzada bu olam ayvonini afsus-u nadomat b-n tark etma:

Ey Navoiy, umr o‘tar yeldek, o‘zungni shod tut,
Elga yetmak mumkin ermastur chu
sur’at ko‘rguzub.

“D.F.” ham shoir adabiy merosining ajralmas qismi. N.ning forsiy she’rlari ham badiiy barkamolligi, teran ma’noli fikrlar va hikmatli so‘zlarga boyligi b-n o‘zbekcha she’rlaridan qolishmaydi. M-n, Amir Xusrav Dehlaviyning “Daryoyi abror” qasidasiga tatabbu’ sifatida yozgan “Tuhfat ul-afkor” qasidasida begunoh kishining ko‘nglini til tig‘i b-n jarohatlash sog‘lom tomirga nashtar urib, uni mayib qilib qo‘yish b-n barobardir, deb yozadi:

Begunahro soxtan ozurda az teg‘i zabon,
Notavon kardan ragi beranjro az nashtar ast.

N. hikmatlariga qiziqish hamma davrlarda ham yuqori bo‘lgan. Bu hikmatlar H.Zarif, S.Mutallibov, H.Sulaymon, S.Ibrohimov, A.Rustamov, B.Akramov, M.Rahmatullayeva, X.Ismatullayev, I.Haqqulov, E.Ochilovlar tomonidan 1939, 1941, 1947, 1948, 1961, 1968, 1985, 1991, 1998, 1999, 2006, 2010, 2011, 2013-yy.da “Navoiy aforizmalari”, “Aforizmlar”, “Hikmatlar”, “Hikmatli so‘zlar”, “Shohbaytlar”, “Alisher Navoiy hikmatlaridan” nomlari b-n qayta-qayta nashr qilinib kelgan. “Hikmatlar guldastasi” (1982), “Ajdodlar o‘giti” (1991), “Mashriqzamin – hikmat bo‘stoni” (1997), “Hikmatlar xazinasi” (2010) to‘plamlaridan ham N. hikmatlari o‘rin olgan.

N. hikmatlari hozirgacha 3 usulda: 1) alifbo tartibida; 2) mavzusiga ko‘ra; 3) asarlari asosida

chop etilib kelmoqda. Har bir usul o‘z afzalliklariga ega. Hikmatlar alifbo tartibida nashr etilganda, u yoki bu hikmatning ilk misrasi yoki so‘zini eslasangiz bas, qolganini o‘sha harf asosida kitobdan topib olasiz. Mavzularga bo‘lingan hikmatlarni o‘zingizga kerakli mavzusiga ko‘ra ajratib olsangiz, asarlar bo‘yicha berilgani ularning qaysi asardan olinganini ko‘rsatib turadi. Hikmatlar matnini berishda esa 2 usul qo‘llanyapti: 1) qadim turkiy, forsiy va arabiy so‘z va iboralarga matn osti yoki kitob so‘ngida izoh bergan holda hikmatlarni asl nusxada keltirish; 2) asl matni ostida hikmatlarning tabdili (nasriy bayoni)ni berish. Chunki shoir asarlarini asl nusxada o‘qib, zavqlanishga moyil mutaxassislar, ziyolilar va didi baland kitobxonlar u-n N. hikmatlarini keng sharh-u izohlar b-n asl holida nashr etish, keng o‘quvchilar ommasi u-n esa ularni tabdili (nasriy bayoni) b-n chop qilgan ma’qul. Bunda ular ham muallif misralari ortida yashiringan fikrlarni butun ma’no qirralari b-n tushunib oladilar, ham buyuk so‘z san’atkorining hassos qalami ostidan chiqqan purma’no satrlarni o‘qib, badiiy-estetik zavq oladilar.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳикматлар. – Т., 1941; 1968; Алишер Навоий. Ҳикматли сўзлар. – Т., 1985; Алишер Навоий ҳикматлари. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ҳикматлар. – Т., 2006; 2011; 2013. Очилов Э. Асрларни бўйлаган ҳикматлар // Алишер Навоий. Ҳикматлар. – Т., 2006; Очилов Э. Ҳикмат бўстони // Алишер Навоий. Ҳикматлар. – Т., 2011.*

E.O., S.O‘.

NAVOIYGA ARMUG‘ON – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti O‘zbek adabiyoti kafedrasi tomonidan nashr etiladigan an’anaviy ilmiy to‘plam. “N.A”ning birinchi kitobi 1968-y. chiqqan edi. Hozirgacha uning oltita kitobi nashr etildi. “N.A.”ga yurtimizning atoqli n.shunosi, professor N.M.Mallayev asos solgan. Unda Vohid Abdullayev, Maqsud Shayxzoda, Abduqodir Hayitmetov, Abdurashid Abdug‘afurov, Najmiddin Komilov, Ibrohim Haqqul singari atoqli olimlar b-n birga iqtidorli tadqiqotchilarning N. ijodining turli jihatlariga bag‘ishlangan maqolalari muntazam ravishda chop etib kelinmoqda.

H.H.

“NAVOIYGA QAYTISH” – taniqli n.shunos Ibrohim Haqqulning turkum kitoblari (1-kitob 2007; 2-kitob 2011; 3-kitob 2016; 4-kitob 2021; 5-kitob 2024). Bu to‘plamlar n.shunoslikning dolzarb masalalari, ulug‘ shoir ijodini yangicha nuqtayi nazardan o‘rganish, asarlarining g‘oyaviy asoslari va badiiyati sirlarini ochish kabi mavzulardagi maqolalar, N. hayoti va ijodini o‘rganish b-n bog‘liq adabiy suhbatlar va buyuk so‘z san’atkorining g‘azal, qit’a, ruboiy, fardlari sharhlarini o‘z ichiga oladi. M-n, 1-kitobdan “Navoiyni anglash mashaqqatlari”, “Navoiyga qaytish”, “Tasavvuf va Navoiy she’riyati munosabatiga doir”, 2-kitobdan “Badiiy matn va tahlil muammolari”, “Navoiy she’riyatida so‘z va ma’no”, “Navoiyning vahdat tushunchasi va panteizm”, “Navoiy she’riyatida fano talqinlari”, 3-kitobdan buyuk mutafakkir hayoti, ijodi, asarlarining yozilish tarixi b-n bog‘liq yangi fakt va tahlillar, merosini tadqiq etish yo‘lidagi o‘ziga xos yondashuvlar aks etgan “Navoiy ijodining olamshumul ahamiyati”, “Navoiy va yunon falsafasi”, “Alisher Navoiy va Abusaid Mirzo”, “Navoiy she’riyatida Haq va shaxs talqini”, 4-kitobdan esa “Haqiqat va she’riyat sultoni”, “Anosiri arba’a: mohiyat va she’riy talqin”, “Malomatiylik va Navoiy”, “Hadis va talqin mahorati”, “Navoiy va Fitrat” kabi n.shunoslik rivoji u-n muhim ahamiyatga ega bo‘lgan dasturilamal xarakterdagi maqolalar o‘rin olgan. 5-kitob “Davr, shaxsiyat va she’riyat”, “Navoiy she’riyatida fano mohiyati va shaxs erki”, “Navoiy she’riyatida hol va haqiqat uyg‘unligi”, “Hadis va talqin mahorati”, “Navoiy she’riyatida dard va bedardlik tazodi”, “Navoiy shaxsi va ijodiy imkoniyatlari”, “Hukmdorlik ravnaqi to‘g‘rilik va adolatdir” kabi N. shaxsiyati va o‘lmas

ijodi tadqiqiga oid maqolalardan tarkib topgan. Ular betakror shoir asarlarini butun ma’no qirralari b-n teran tushunish, yuksak g‘oyalarining mazmun-mohiyatini anglash, asarlari badiiyati sirlarini kashf etish va, tabiiyki, n.shunoslikni yanada yuqori bosqichga ko‘tarishga xizmat qilishi shubhasizdir.

Ad.: *Ҳаққул И. Навоийга қайтиш. – Т., 2007 (1-китоб); 2011 (2-китоб); 2016 (3-китоб); 2021 (4-китоб); 2024 (5-китоб).*

E.O.

NAVOIYNING “JOME’” MASJIDI N. mazkur inshootni “Injil” arig‘i va o‘z uyining yonida qurdiradi. Masjid o‘z davrida go‘zal va shinamligi b-n mashhur bo‘lib, o‘ng va chap tomonida ikkita minora qad ko‘tarib turgan. U oltin suvi yugurtirilganishlangan naqshlar b-n bezatilgan. Masjid N. hovlisining qarshisida joylashgan. Masjid o‘rtasi, hovli qismida hovuz bunyod etilgan. Masjidning kirish joyida N. tavsiyasiga asosan, katta marmar toshga Qozi Ixtiyoridinning bir qit’asi yozib qo‘yilgan ekan. Bu masjid ko‘rinishidan Gavharshodbegim masjidiga o‘xshab ketsa-da, undan keng va balandligi b-n farq qilgan. Masjid XIX asrgacha mavjud bo‘lgan, lekin hozirgacha saqlanmagan.

N. masjid joylashishi haqida: “Va madrasadin kirgach masjid oning haddi g‘arbiki, qibla sori bo‘lg‘ay, voqe’ bo‘ldi...”, deb yozadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Вақфия. ТАТ. 10 жилдлик. 9-жилд. – Т., 2011; Хондамир. Равзат ус-сафо. 7-жилд. Тошб. 95-б; Аҳмедов Б. Хондамир. – Т., 1965; Муҳаммадёқуб Воҳидий Жузжоний, Амир Алишер Навоий-Фоний. – Кобул-1346 ҳ.й.*

Muh.A.

“NAVOIYNING IJOD OLAMI” – O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti folklori instituti O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi bo‘limi tomonidan N. hayoti va ijodiga bag‘ishlangan tadqiqotlar asosida nashr etiladigan davriy to‘plam. Uning 1-kitobi shoir tavalludining 560 yilligi munosabati b-n 2001-y.da chop etilgan. To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarda N. adabiy merosining deyarli o‘rganilmagan yoki mustaqillik davrigacha o‘rganishning imkoni bo‘lmagan muammolari yoritilgan. Mutafakkir shoir ijodining islom dini va tasavvuf ta’limoti b-n bog‘liq jihatlari tadqiq etilgan “Tasavvuf va Navoiy she’riyati haqida” (I.Haqqul), “Alisher Navoiy va ijodkor temuriylar” (S.G‘aniyeva), “Komillikning ikki yo‘li” (E.Ochilov), “Nasoyim”ning o‘ziga xos xususiyatlariga doir” (N.Ramazonov) kabi maqolalar shular jumlasidandir. To‘plamdagi maqolalar n.shunoslikning mohiyat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilayotgani, sohaning tadqiqot tarmoqlari kengayib borayotganini ko‘rsatadi.

2-kitob ulug‘ shoir tavalludining 570 yilligi munosabati b-n 2011-y.da chop etildi. Undan N. ijodining turli qirralarini yoritishga bag‘ishlangan maqolalar o‘rin olgan. “Navoiy she’riyatida so‘zning obrazga aylanish asoslari” (I.Haqqul), “Turkiya tazkiralari, ularga oid asarlarda Navoiy” (S.G‘anieva), “Qalandariylik va Navoiy she’riyati” (S.Rafiddinov), “Navoiy nasrida matn kompozitsiyasiga doir” (Q.Ergashev), “Tuhfat ul-afkor” tarjimalarining qiyosiy tahlili” (E.Ochilov), “Tamsil – ma’no va haqiqat mezoni” (B. Rajabova), “Navoiy ijodining Turkiyada o‘rganilishi” (N.Hasan), “Xamsa” qahramonlari va faqr maslagi” (N.Ramazonov), “Rang simvolikasi va obrazlilik” (S.O‘tanova), “Xamsa”da soqiynoma xarakteridagi baytlar” (M.Asadov) kabi maqolalar shular jumlasidandir. To‘plamdan yosh tadqiqotchilar izlanishlarining keng o‘rin egallashi esa n.shunoslikning kelajagiga umid uyg‘otadi. 3-kitob N. tavalludining 575 yillik yubileyi munosabati b-n 2016-y.da, 4-kitob esa 580 yillik munosabati b-n 2021-y.da chop etilgan. Mazkur nashrdan N. ijodidagi irfoniy mazmun-mohiyat tahlili, shoir poetikasiga doir masalalar hamda xorij n.shunosligi tadqiqiga bag‘ishlangan maqolalar o‘rin olgan. Xususan, “Navoiy shaxsi va ijodiy imkoniyatlar” (I.Haqqul), “Tojikiston va Eronda navoiyshunoslik” (M.Asadov), “Na-

voiy ijodida “ma’rifat” talqini” (S.Rafiddinov), “Bahoriston”da Navoiy ta’rifi” (B.Rajabova), “Alisher Navoiyning tarixiy asarlarda ranglardan foydalanish mahorati” (S.O‘tanova), “Ahli fano va faqr murshidi” (Z.Rahmonova), “Navoiy qit’alarida ba’zi tasavvufiy tushunchalar talqini” (M. Xudoyorova) mavzusidagi maqolalarda keltirilgan ilmiy xulosalar N. ijodini tadqiq qilayotgan yosh mutaxassislar uchun muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, to‘plamda yosh tadqiqotchilar izlanishlariga ham alohida e’tibor qaratilib, M. Hakimov (“Xamsa” yog‘dulari), R.Saidova (“Lison ut-tayr”da malomatiylik motivlari) hamda M.Ibrohimova (“Farhod va Shirin”da dunyo obrazining badiiy talqini)ning maqolalari kiritilgan.

“N.I.O.” ilmiy maqolalar to‘plamining 5-kitobi 2022-y.da nashrga tayyorlangan. Kitobga atoqli adabiyotshunos olimlar hamda yosh izlanuvchilarning maqolalari kiritilgan bo‘lib, ularda n.shunoslikning bir qancha yo‘nalishlari uchun yangilik bo‘lgan ilmiy qarash va nazariyalar o‘z ifodasini topgan. To‘plamga Ozarbayjon n.shunos olimasi Almaz Ulvi, atoqli o‘zbek adabiyotshunoslari I.Haqqulov, N.Jabborov, H.Boltaboyev, M.Asadov, S.Rafiddinov, E.Ochilov maqolalarining kiritilgani kitob qimmatini belgilaydi. Jumladan, prof. I.Haqqulovning “Navoiy she’riyatida dard va bedardlik tazodi” maqolasi she’r va shoirlik, tug‘ilish va yashash mohiyati, insoniylik xislatlarining g‘am-qayg‘u va hasrat bilan uzviy aloqasi singari umumbashariy savollarga bir qadar javob topishda muhim hisoblanadi. Bundan tashqari N. ijodi poetikasi haqidagi “Navoiy fardlarining poetik xususiyatlari” (M.Asadov), “Navoiy va Ogahiy ijodida gul va bulbul obrazlarining badiiy vazifalari” (E.Ochilov), “Alisher Navoiy ijodida soqiy-murshid obrazi” (Z.Rahmonova), “Obraz ruhiyati va rang haqiqatlari” (S.O‘tanova) kabi maqolalar she’riyatda janr va obraz ahamiyatini yoritgani bilan ahamiyatlidir.

Ad.: *Навоийнинг ижод олами. 1-китоб. – T., 2001; 2-китоб. – T., 2011; 3-китоб. – T., 2016; 4-к. – T., 2021; 5-китоб. – T., 2022.*

M.A.

NAVOIYNING INSON KONSEPSIYASI

O‘z ijodiyotida inson masalasiga keng to‘xtalib, izchil munosabat bildirgan, uning o‘z davri u-n eng chuqur hayotiy talqinini bergan buyuk shoir va mutafakkirlardan biri N.dir. Ulug‘ shoirning bu masalaga oid ilk mulohazalari uning yigitlik yillari (taxminan 1464–1465-yy)da o‘z ustozi, otaxoni Sayyid Hasan Ardasherga yozgan she’riy maktubida bayon qilingan. Sayyid Hasan Ardasher o‘z davrining yirik fan va madaniyat arbobi, shoir va mutafakkiri bo‘lib, N.ning tarbiyasida muhim rol o‘ynagan kishilardan edi. Xurosonda 1464–1465-yy.dagi ijtimoiy-siyosiy hayot taqozosiga ko‘ra N. Hirotni tark etib, Samarqandga ketar ekan, u yerdan Sayyid Hasanga yozgan she’riy xatida o‘z ahvolini sharhlash b-n bir qatorda ustozini ta’riflab, bir qancha baytlar bitadi. Ular orasida shunday bir bayt ham bor:

To‘ni charx-u anda o‘zi bir jahon,
Jahonni qilib bir to‘n ichra nihon.

Bunda N. Sayyid Hasanning o‘zini “bir jahon” deb hisoblash b-n birga, uning egnidagi to‘nini keng osmon (“charx”)ga qiyoslab, bu to‘nning butun bir olamni o‘ziga sig‘dirib turganiga hayratlanmoqda. Sayyid Hasan vafotidan keyin u to‘g‘rida “H.S.H.A.” nomli risola yozib, N. uning shaxsini yanada konkretlashtirgan, risolada maktubidagi gaplarga sodiq qolib, ustozining olimlik, odamiylik xususiyatlarini chuqur ochib bergan edi.

N.ning inson konsepsiyasi, ayniqsa, uning “X.” dostonlarida o‘zining g‘oyat chuqur ifodasini topdi. U “H.A.” dostonida tabiat qo‘ynidagi, olamdagi barcha narsalarni Alloh yaratgan, deb tushuntirishga harakat qilar ekan, bularning hammasini yaratishdan uning ko‘zlagan bosh maqsadi insonni yaratish (“Lek boridan g‘araz inson edi”) deydi. Ayni vaqtda, N.ga ko‘ra, u insonni har jihatdan – aqlda ham, husnda ham “komil”, o‘ziga sirdosh (“Sirri nihoningg‘a dog‘i homil ul”) qilib yaratgan. Shuning u-n borliq, tabiat, hatto ilohiyot sirlari (“ganji ilohiy”)ni insondan

boshqa biron mavjudot bilmaydi, bila olmaydi va bilishga intilmaydi ham. Shundan kelib chiqib, N. har dostonida insonning inson bo‘lib yaratilganini uning u-n katta baxt deb izohlashga, buni har bir insonninng ongiga yetkazishga intiladi, o‘zining ham birinchi navbatda haqiqiy inson bo‘lishini istab deydi: Ayla Navoiyni burun odamiy!...

N. “X.”sidagi har bir dostonning kirish qismlarida o‘z xalqiga chinakam xizmat qilgan, butun hayotini, iste’dodini ilmga, adabiyot va san’atga bergan, tarixda yaxshi nom qoldirgan Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy kabilarni maxsus boblarda ko‘klarga ko‘tarib madh etgan. M-n, “F.Sh.” dostonida N. o‘z zamondoshi, ulug‘ shoir va olim Jomiy haqida shunday satrlarni bitgan:

Jahon yo‘q, olami kubro de oni,
Jahonda maqsadi aqso oni,
Ki har ne olami sug‘roda mavjud,
Bori bu olami kubroda mavjud.

N.ga ko‘ra, Jomiy shunday ulug‘ insonki, uni oddiy bir olamga qiyoslash to‘g‘ri emas. Uni “olami kubro” – “katta olam” deb atashgina o‘rinli bo‘ladi. Chunki Jomiy o‘lmas asarlari b-n shunday yangi bir ma’naviy olam yaratganki, bu b-n butun insoniyat faxrlanadi. N. insonni madh etar ekan, o‘zining bu ta’rif va tavsiflarini hech qachon mukammal deb bilmadi, doim uni yanada takomillashtirishga harakat qildi. Shu ma’noda uning “S.I.”da bu masalaga yondashishi xarakterlidir. Bu o‘rnida ham insonni ulug‘lashda tasavvuf adabiyotidagi an’anaviy ibora va uslub saqlanib, Xudoning olamni yaratishdan maqsadi odamni yaratish bo‘lgani, dunyoda nimaiki bo‘lsa, hammasi odam tufayli yuzaga kelgani ta’kidlanadi:

Karam birla xalq aylagay olame,
Bu olamda maqsud anga odame.
G‘araz – odame, anga olam tufayl,
Nekim g‘ayri olamdur-ul ham tufayl.

N. bu asarda Odamning olamdagi, tabiatdagi o‘rnini boshqa asarlaridagiga qaraganda yanada aniqroq tushungani, tushuntirmoqchi bo‘lgani ko‘zga tashlanadi. Bu yerda N. ortiqcha mubolag‘alardan qochib, dunyoni bamisoli bir gulshan deb olar ekan, insonni tabiat b-n bog‘lab, uni shu gulshandagi gullarga qiyoslaydi, oddiy gul emas, balki “rizvon guli” – “jannat guli” deb ta’riflaydi. Bunda shoirdagi samimiyat va haqqoniyatni yanada kuchliroq his etish qiyin emas:

Ochilg‘on bu gulshanda inson guli,
Ne inson guli, bog‘i rizvon guli.

N.ga ko‘ra, u (inson) shunday yetuk va go‘zal mavjudot bo‘lgani u-n ham olamdagi boshqa barcha jonli va jonsiz predmetlarga nisbatan ko‘proq izzat va ikromga sazovor bo‘lgan, tani “sharaf to‘ni” (duvoj-to‘n) b-n, boshi esa toj b-n bezatilgan:

Tanig‘a sharafdin duvoj aylading,
Boshin ham sazovari toj aylading.

Bu kabi satrlarda N. insonni, uning qadr-qimmatini falsafiy aspektda kashf qilgan. N. insonni “olam ichidagi olam”, Xudo o‘z aksini tomosha qiladigan oyna (“mir’ot”), tabiatdagi eng noyob gul sifatida ulug‘lar ekan, bunda ulug‘ shoir insondagi ijobiy xususiyatlarni, undagi cheksiz aqliy imkoniyatlarni, uning o‘y-fikr va intilishlarining mislsiz boyligini ko‘zda tutadi. Jamiyatda inson qadr-qimmati, avvalo, uning o‘z kasbiga halol munosabati orqali belgilanadi. Dehqon yerga yaxshi ishlov bermasa, bog‘bon o‘z kasbini puxta egallamasa, daraxtlarini yaxshi ko‘kartira olmasa, hunarmand hunarini elga ko‘rsata olmasa, xattot kitoblarni xato b-n ko‘chirsa, muallim (“maktabdor”) “begunoh ma’sumlarga mafokorlig‘” qilaversa, savdogarlar xaloyiqni aldayversa, bundaylarni qanday qilib yetuk odamlar deyish mumkin? Bu masalalar tahliliga N. o‘zining “H.A.”, “M.Q.” kabi eng yirik asarlarini bag‘ishladi. Bu asarlarda axloqiy muammolar masalasi birinchi o‘ringa chiqib qolgani bejiz emas. Avvalo, XV asrdagi ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy

ahvolning o‘zi shuni taqozo etgan. Inson axloqi, odobi b-n odam. Insonda yaxshilik qilish imkoniyatlari cheksiz bo‘lgani kabi, yomonlik qilish imkoniyatlari ham benihoya. U o‘z odamiyligini, jamiyat oldidagi odamiylik burchini chuqur tushunsagina, uni har qanday yomonliklardan saqlab turadi. Shuning u-n N. inson qanday axloqiy fazilatlarga ega bo‘lsa, u haqiqiy inson hisoblana oladi? – degan masalaga jiddiy ahamiyat bergan. N. bu fazilatlarni belgilashda diniy va tasavvufga oid mazmun-mohiyatdan foydalangan. “H.A.”da bayon etilishicha, har bir inson o‘z insoniylik burchi, vazifasi hamda tabiatiga ko‘ra ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy masalalarni hal etishda, baho berishda odil, jamiyatdagi moddiy boyliklar taqsimotida halol va saxiy, odamlar b-n o‘zaro munosabatda rostgo‘y, shu moddiy boyliklarni yaratishda mehnatsevar, kundalik yurish-turishda kamtar, boshiga mushkul ish tushganda sabotli, qanoatli bo‘lmog‘i, hech qachon xudbin, badnafs bo‘lmasligi, bir umr yaxshi xususiyatlarni kasb etishga, ilm olishga intilmog‘i kerak.

Insondagi eng oliy fazilat esa boshqalarga yaxshilik qilish, yordam berishdir:

Odamiy ersang, demagil odamiy,
Onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami.

N.ga ko‘ra, birovlarning o‘limidan xursand bo‘ladigan kishilarni haqiqiy odam, deyish mushkul:

Kimki kishi o‘lmakidin shod erur,
Go‘rkan-u g‘osil-u jallod erur.

Insondagi insoniylikning yana bir muhim belgisi, N. yozishicha, vafodorlikdir. Bu masalaga shoir deyarli hamma asarlarida to‘xtalib o‘tgan. “H.A.” va “M.Q.”da esa bunga maxsus boblar ajratilgan. Vafoni zulmatni yorituvchi shamga, gulga, durga, gavharga qiyoslagan shoir vafo tushunchasiga ham ijtimoiy, ham axloqiy-tarbiyaviy ma’no yuklagan. Vafodorlik odamlarda garchi kam uchraydigan sifat bo‘lsa ham, N. odamiylikni busiz tasavvur eta olmaydi. “Davr vafolari javridin dod va dahr behayolari zulmidin fig‘on-u faryod!”, – deydi shoir o‘z zamonasiga qarata. Bunday o‘rinlarda N.ning bu xil axloqiy kategoriyalar haqidagi mulohazalari chuqur ijtimoiy ma’no kasb etadi.

N.ning inson konsepsiyasi uning “L.T.” dostoni, “X.M.”, “D.F.”dagi she’rlarida ham chuqurlashtirilgan va keng izohlangan. Shoir chin inson bo‘lish garchi juda qiyin bo‘lsa ham, lekin u bunga astoydil kirishsa, o‘zini, fe’l-atvorini nazorat qila bilsa, jaholatni butunlay tark etsa, fir’avnlarga xos bo‘lgan g‘ayriinsoniy xususiyatlarini unutsa, nafsini tiysa, u maqsadiga to‘la erisha oladi, deydi. Buning u-n uning “zotida” hamma imkoniyatlar mavjud. “L.T.”da shoir bu haqda mulohaza yuritib, insonni eng yuksak axloqiy martabalarga chorlab deydi:

Bordur inson zotida oncha sharaf,
Ki yamon axloqin etsa bartaraf,
Bo‘lmasa fir’avnlig‘ing payravi,
Qolmas ondin juz sifoti musavi.

Insoniylik haqida N.dan oldin yashagan Ahmad Yassaviy, Ahmad Yugnakiy, Nosiriddin Rabg‘uziy, Yusuf Amiriy, Lutfiy, Haydar Xorazmiy kabi o‘zbek shoirlari va adiblari ham o‘z fikrlarini bildirganlar. Ammo N. o‘zbek adabiyoti u-n insonni yangidan kashf qildi. Nihoyat N. insonni badiiy jihatdan ham yangidan kashf etdi. Lirik va epik asarlarida o‘nlaab ma’naviy boy va yuksak qahramonlarning obrazlarini gavdalantirib berdi. U minglab she’rlarni o‘z ichiga olgan “X.M.”dagi lirik qahramon – oshiq va ma’shuq, “X.” dostonlaridagi Farhod, Majnun, Shirin, Layli, Dilorom, Shopur, Navfal obrazlarini o‘zining gumanistik ideallaridan kelib chiqib chizdi. Yoshligidan boshqalarning g‘amini yegan, mehnatga o‘rgangan, bilim izlagan, vafoni o‘ziga shior qilgan Farhod; tengi yo‘q go‘zal, quyosh nuriday musaffo Shirin; muhabbat va sadoqat ramzi – Layli va Majnun: haq so‘z u-n ming jafolarga mahkum etilgan, mustahkam irodali Dilorom va boshqalar o‘zida ulug‘ shoirning inson konsep-

siyasini har tomonlama yorqin gavdalantira oldi. Farhod yoshligidan biror baxtsizlikka uchragan yoki yig‘lab turgan odamni ko‘rsa, unga befarq qaray olmagani, dardiga sherik bo‘lishga intilgan, birovlarning azob chekayotganini ko‘rsa, u ham boshqalardan ortiq qiynalgani, yuragi ezilgani haqida N. shunday deydi:

Biravkim zor yig‘lab, yig‘lab ul zor,
Topib ko‘ngli el ozoridin ozor.

Bu Farhod xarakteridagi odamiylikni ko‘rsatuvchi porloq tomonlaridan biridir.

Shirinning Xusrav sovchilariga:

Menga ne yor-u ne oshiq havasdur,
Agar men odam o‘lsam ushbu basdur! –

deb mag‘rur javob berishida uning butun ichki ma’naviy go‘zalligi aks etgan deyish mumkin. N. ning “N.Sh.” devonidagi: Kimki insondur, aning mahbubi ham inson kerak! – degan satri esa uning butun lirik merosiga epigraf qilib olishga arziydi.

Xullas, N. adabiyoti, badiiy ijodni insonsiz tasavvur eta olmaydi. U o‘zining butun ijodini insonga bag‘ishladi, inson yaxshiliklaridan cheksiz zavqlandi, ilhomlandi, salbiy xususiyatlarini, zamon jobirlari va yosumanlarini esa murosasiz ravishda qoraladi.

Ad.: *Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. – Т., 1987–93; Ойбек. Навоий гулшани. – Т., 1967; Зоҳидов В. Мир идей и образов. – Т., 1961; Зоҳидов В. Улуғ шоир ижодининг қалби. – Т., 1970; Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. – Т., 1961; Султон И. Навоийнинг қалб дафтари. – Т., 1969.*

Ab.H.

NAVOIYNING OBODONCHILIKKA OID ISHLARI N. davlatning turli yuqori lavozimlarida ishlar ekan, obodonchilikka alohida e’tibor berardi. N. shoir va olim kishi bo‘lganligi hamda mamlakat obodligi ilm-fanga bog‘liqligini chuqur his etgani u-n bu masalaga katta e’tibor qaratdi. O‘sha paytning oliy o‘quv yurtlari bo‘lgan madrasalar qurdirib, ularga mudarris, ya’ni o‘qituvchi tayinladi. Mudarrislar uy-joy, oziq-ovqat va katta maosh b-n ta’minlangan edilar. Madrasa talabalari ham yetarlicha nafaqa olar va xotirjam holda ilm b-n shug‘ullanishardi. Bular haqida Xondamir o‘zining “Makorim ul-axloq” asarida ma’lumot berar ekan, N. qurdirgan madrasalarni sanab o‘tadi: “Nizomiya” madrasasi, “Xusraviya” madrasasi, “Shifoiya” shifoxona madrasasi. Bu yerda tibbiyotdan dars berilgan. “Ixlosiya” madrasasi, “Xalosiya” xonaqohi. Aslida, xonaqoh so‘fiy, darvesh va uy-joysiz kishilar yashaydigan joy bo‘lsa-da, “Xalosiya” xonaqohida esa diniy va tasavvufiy ilmlar o‘rgatilgan. Xondamir N. xonaqohining yana bir diqqatga sazovor tomoni haqida shunday yozadi: “...xonaqohda har kuni Qur’on tilovat qilinib, faqir va zaiflarga taom beriladi va har yili qariyb ikki ming po‘stin, chakmon, ko‘ylak, cholvor, toqiya va kafsh tarqatiladi”.

N. qurdirgan Xoja Abdulloh Ansoriy mozoriga qurilgan xonaqoh, “Jamoatxona” xonaqohi, “Fanoiya” xonaqohi, “Ziyoratgoh” xonaqohi; Mashhaddagi Imom Rizo ravzasida qurilgan “Dor ul-huffoz” xonaqohi, Nishopurdagi Shayx Farididdin Attor sarmozoridagi xonaqohlarda ham har kuni faqir, miskin va musofirlarga taom berilib, turli xil boshqa yordamlar ko‘rsatilgan.

N. ancha ilgari boshqalar tomonidan qurilgan, lekin vaqt o‘tishi b-n eskirgan madrasa, xonaqoh va shifoxonalarni ham ta’mirlatgan. M-n, Hirotdagi Malik G‘iyosiddin qurdirgan “G‘iyosiya” madrasasi, Malik Mu’iziddin xonaqohi, Milkat og‘a dorushshifosi (shifoxonasi) va dorulhadisi (tafsir va hadis o‘rganiladigan madrasa) shular jumlasidandir.

N. ko‘pgina masjidlarni ham yangilagan. M-n: Amir Feruzshoh masjidi, Mirzo Alouddavla (Boysung‘urning o‘g‘li, Shohruhning nevarasi) masjidi, “Saripuli Injil” masjidi, “Jome’” masjidi. Ulug‘ shoir bundan tashqari, musofirlar qo‘nib o‘tadigan Shayx Yahyo langari va Xoja

Chihilgaz mozori ustiga qurilgan ulkan gumbazni ham yangilatgan.

N. mehmonxonalar qurilishiga ham katta e'tibor qaratgan. Ular sirasiga Shayx Muhyi sarmozori langari, Marvda qurilgan Shayx Sirriy langarini sanab ko'rsatish mumkin. Bundan tashqari, ulug' shoir 50 dan ortiq rabot qurdirgan ediki, ular ham mehmonxona vazifasini bajargan. Chunonchi, Raboti Oqrabot, Raboti Tarnob, Raboti Mashhadi Muqaddas, Raboti ishq, Raboti Sangliklar, Raboti Jom, Raboti Yonbuloq va h.k.

Ulug' shoir xalqning sayr qilishi va dam olishi u-n ham maxsus sayrgohlar bino qildirgan. Bunday sayrgohlarni buyuk kishilar sarmozori yaqinida barpo etgan. Avvalo, shunday sarmozorlarda dabdabali imoratlar qurdirgan. M-n: Piri mujarrad Xoja Abdulvalid Ahmad sarmozori imorati, Amir Abdulvohid ibn Muslim sarmozori imorati, Xoja Yusuf Hamadoniy sarmozori imorati, Abdurahmon Jomiy sarmozori imorati, Mavlono Muhammad Tabodgoniy sarmozori imorati, Xoja Abdulloh Ansoriy sarmozori imorati. Bulardan tashqari, N. maxsus sayrgoh bog'lar ham qurdirgan. Marg'ani bog'i, Taxti Saripuli Sangkashon, Bog'chayi Shavqiya; Gozurgoh, Taxti Bobo so'xta, "Havzi mohiyon" imorati yonidagi bog' shunday sayrgohlar edi.

N. mamlakat obodligi va xalq farovonligining muhim manbalaridan bo'lgan suvga katta e'tibor berdi. Shu sababli u 19 ta katta hovuz yoki suv omborlari qurdirdi. Jumladan, Ixtiyoriddin qal'asi oldidagi hovuz, Chorraha hovuzi, "Shifoiya" yonidagi hovuz, Jomiy sarmozoridagi hovuz; Ziyoratgohdagi hovuz, Xorazm yo'li ustidagi hovuz, Andxuddagi hovuz, Zuroboddagi hovuz. Ulug' shoir suvsiz yerlarga ariq (kanal) orqali suv yetkazib berish u-n ko'pincha o'zi mablag' ajratardi. Chunki katta va uzun ariq qazish ko'p mablag' talab qilardi. Tus viloyatining Chashmayi Gulist (Guliston) bulog'idan Mashhadgacha bo'lgan 70-80 kilometrlik ariq (kanal), asosan, N. mablag'i b-n qazilgan. Xuroson, shuningdek, Movarounnahr davlatlari hududida yer ko'p ediyu, ammo suv kam edi. Shu sababli qayerda suv serob bo'lsa, ariq qazib, boshqa joylarga suv olib berilardi. N. 16 ta ko'prik va 2 ta to'g'on ham qurdirgan edi. Boyxoja, Tarnob, Tulki, Sepulak ko'priklari; Xayrobod ko'prigi va to'g'oni, Turuk ko'prigi va to'g'oni shular jumlasidandir. Ulug' shoir ayrim ko'priklarni, masalan, Nigor va Tir ko'priklarini marmardan qurdirgan.

Xondamir N. qurdirgan 9 ta hammomni maxsus sanaydi: "Shifoiya" yonidagi hammom, Ziyoratgoh hammomi, Darayi Zangi hammomi, Tevachi hammomi, Childuxtaron hammomi, Tarnob hammomi, Panjdeh hammomi, Fayzobod hammomi, Sa'dobod hammomi.

N.ning zamondoshlari ulug' shoirning obodonlikka doir qilgan ishlari haqida fikr yuritar ekanlar, ko'pincha "shulardan ba'zilarini sanab o'tiladi", – degan jumlani tez-tez takrorlaydilar. Shundan ma'lum bo'ladiki, N.ning yuqorida qayd etilgan obodonchilikka oid ishlari ulug' shoirning bu boradagi barcha faoliyatini qamrab olmaydi. Ammo shular ham N.ning obodonchilikka butun umrini sarflaganini ko'rsatadi. Shu b-n birga, bir kishi tomonidan shuncha ulug'vor ishlarning amalga oshirilgani har qanday odamni ham hayratga soladi, ham havasini keltiradi.

Ad.: *Хондамир. Макорим ул-ахлоқ (К.Раҳимов тарж.). – Т., 2018.*

Ab.A.

NAVOIYNING SIYOSIY FAOLIYATI

Husayn Boyqaro Hirot taxtini egallagach, saltanatni birga boshqarish u-n maxsus farmon b-n bolalik do'sti N.ni Samarqanddan chaqirtirib oladi. 1469-y. Ramazon hayiti munosabati b-n o'tkazilgan qabul marosimida N. Husayn Boyqaroni taxtga chiqqani b-n qutlab, unga "Hiloliya" qasidasini taqdim etadi. O'z navbatida, podshoh uni muhrdorlik vazifasiga tayinlaydi. Bu saroydagi eng katta mansablardan biri bo'lib, davlat ahamiyatiga molik har qanday hujjat muhrdor orqali rasmiylashtirilar edi. Shu kundan e'tiboran, N.ning siyosiy faoliyati boshlanadi.

N.ning ota-bobolari ham temuriy shahzodalarga yaqinliklari jihatidan hamisha saroy doi-

rasida o‘ziga xos obro‘-e’tiborga ega va amirlik rutbasi b-n sarafroz edilar. U oilaviy an’anani davom ettirib, barchadan yuksak maqomga ko‘tarildi. Ulug‘ shoir o‘z siyosiy faoliyatining boshidanoq Husayn Boyqaroning to‘g‘ri siyosat yuritishiga harakat qildi. Bu borada Boburning quyidagi fikri diqqatga sazovor. U yozadi: “Avval taxt olg‘onda (Husayn Boyqaro ilk marta 1469-y. 24-martda Xuroson taxtini egallaganda) xayoli bor ekandurkim, duvozdah (o‘n ikki) imomni xutba (juma namozi va bayramlarda xalqqa nasihat qilish jarayonida podshoh yoki davlat tayanchi bo‘ladigan kishilarni tilga olish) da o‘qutg‘ay. Alisherbek va ba’zilar man’ qilibturlar”. O‘n ikki imom-shia mazhabidagilar e’tiqod qiladigan imomlar sulolasi. Ular Hazrat Ali, Hasan, Husayn, Zayn Ulobidin, Muhammad Boqir, Ja’far Sodiq, Musa Kozim, Ali Rizo, Muhammad Taqiy, Ali Nahiy, Hasan Askariy, Muhammad Mahdiydir. Husayn Boyqaro davlatida esa asosiy aholi sunniylar edi. Agar Husayn Boyqaro xutbada ularni tilga oldirganda, norozilik yuz berishi mumkin edi. Buni chuqur anglagan N. va unga hamfikr kishilar shohni bu yo‘ldan qaytaradilar. Boburning N.ni maxsus tilga olishidan ma’lum bo‘ladiki, bu masalada ulug‘ shoir muhim mavqe tutgan.

N.ning o‘ziga xos tarjimayi hol maqomidagi “Vaqfiya” asarida u o‘zining davlat arbobi sifatidagi faoliyatida quyidagi 7 tamoyilga asoslanib, ish tutganini alohida ta’kidlaydi:

1. Sidq-u ixlos b-n Husayn Boyqaro saltanatini mustahkamlash u-n xizmat qildim.

2. Adab qoidasini qattiq tutib, ko‘rish joiz bo‘lmagan narsadan ko‘zni yumdim, eshitish lozim bo‘lmagan gapdan quloqni bekitdim, bormas yerdan oyoqni, tutmas nimadan qo‘lni tortdim, oshkor qilish taqiqlangan sirni tilga chiqarmadim.

3. Shaxsiy orzu-havaslardan voz kechib, mamlakat va xalq manfaati u-n bor kuchimni safarbar etdim.

4. O‘zimga berilgan imkoniyatdan foydalanib, zulm bulutlarining adolat quyoshi yuzini yopishiga, bid’at shamolining shariat shamiga zarar yetkazishiga yo‘l qo‘ymaslikka intildim.

5. Iloji boricha fuqarolarni zulm-u nohaqliklardan, yurtni tashqi va ichki dushmanlar hujumi va adovatidan himoya qildim.

6. Mamlakatda biror toifa yoki tabaqa yo‘qki, menga ishi tushib kelmagan bo‘lsa − birortasidan biror nima tama qilmay, barchaning muammosini beg‘araz hal etib, hojatini beminnat chiqarib, o‘zimdan rozi va minnatdor qildim.

7. Ziroat b-n mashg‘ul bo‘lib, halol yo‘l b-n topgan mablag‘imdan bir kishining tirikchiligi u-n lozim bo‘lganinigina olib qolib, qolganini saltanat xarajatlari u-n Sultonga peshkash qildim, xayriya ishlariga sarfladim.

Muhrdor, vazir, maslahatchi, hokim bo‘lib ishlar ekan, N. oqil siyosatchi, odil amaldor, uzoqni ko‘ra oladigan davlat arbobi, jasur sarkarda va mohir diplomat sifatidagi iste’dodining yangi qirralarini namoyon etadi.

1469-y. kuzida Hirotda notinch vaziyat yuzaga keladi: hokimiyat u-n intilayotgan yana bir temuriyzoda Yodgor mirzo Husayn Boyqaroga qarshi hujum boshlaydi. Husayn Boyqaroning u b-n jang qilish uchun ketganidan foydalangan Xoja Abdullo va Xoja Nizomiddin Baxtiyor kabi amaldorlar xalqqa zulm o‘tkazib, Hirot aholisining isyon ko‘tarishiga sabab bo‘ladilar. Vaziyatni izga solish u-n N. yuboriladi. N. xalqning haqli talab-istaklari e’tiborga olinishi, zolimlar tegishli jazoga tortilib, mamlakatda adolat o‘rnatilishi lozimligi to‘g‘risidagi shohning rasmiy farmoyishini olib keladi hamda xalqni tinchlantirib, uni jome’ masjidida o‘qib eshittiradi. Shu tariqa, u oqil va tadbirkor siyosatchi sifatidagi noyob iste’dodini namoyish qilib, hech kimga bo‘ysunmagan xalqni tinchitish chorasini topadi, aybdorlarni jazoga tortadi. Hirotda tartib va tinchlik o‘rnatib, Sultonning e’tiborini qozonadi.

Husayn Boyqaro Mashhad yaqinida Yodgor mirzoni yengsa-da, o‘ziga qarshi yurish boshlagan Movarounnahr hokimi Sulton Ahmad mirzo b-n urushga kirishadi. Bundan foydalangan Yodgor mirzo Hirotdagi ammasi Poyanda

Sultonbegim b-n til biriktiradi va Ozarbayjon hukmdori Uzun Hasandan yordam olib, 1470-y. 30-iyunda Hirot taxtini egallaydi. Lekin u erishgan muvaffaqiyatidan g‘ururlanib, aysh-u ishratga berilib ketadi, mamlakatda tartibsizlik avjiga chiqadi. Uning taxtga kelishiga yordam bergan ozarbayjonlik amirlar zulmining haddan oshishi xalqni norozi qiladi. Vaziyatni sinchkovlik b-n kuzatib turgan Husayn Boyqaro Hirotga qo‘shin tortadi. N.ning maslahati b-n kechasi to‘satdan hujum qilishga kelishiladi. Hujum 1470-y. 22-avgust kuni kechasi amalga oshiriladi. Yodgor mirzo Bog‘i Shimoldagi qasrda edi. Xondamirning xabar berishicha, Husayn Boyqaro yonidagilarni qasrga chiqishga undaydi, lekin hech kim bunga jur’at etmaydi. Shunda N. qilichini hassa qilib, yashirin yo‘l orqali qasrga chiqadi. Sulton uning ortidan Amir Qul Alini yuboradi. Ikkalasi Yodgor mirzoni qo‘lga oladilar va u qatl etiladi. Shunday qilib, N.ning siyosiy jasorati tufayli Husayn Boyqaro taxtni ikkinchi marta qo‘lga kiritadi.

N. “M.Q.” asari muqaddimasida o‘zining ba’zida Husayn Boyqaro saltanatini mustahkamlash u-n jang-u jadallarga ham aralashishiga to‘g‘ri kelganiga ishora qilib, “Goh harb ma’rakasig‘a o‘zumni soldim”, – deb yozgan edi. Mashhur muarrix A.Samarqandiyning “Matla’yi sa’dayn va majmayi bahrayn” asarida ma’lumot berishicha, Yodgor mirzo Hirotni egallagach, ko‘pchilik a’yon va sarkardalar Husayn Boyqarodan umid uzib ketganida, N. do‘stining yonida turib, chinakam sadoqat ko‘rsatgani va uning 2-marta taxtni qo‘lga kiritishi yo‘lida favqulodda jasorat namoyon etgani, ana shunday insoniyligi va mardligi b-n shohning ishonchini oqlab, suyanchiga aylangani u-n ham shundan keyin unga “muqarrabi hazrati sultoniy” – “Sulton hazratlarining eng yaqin kishisi” unvoni beriladi.

Davlatni boshqarish ishlarida salohiyati yetarli bo‘lsa-da, N. go‘yo ikki o‘t orasida qiynalardi: bir tomonda − birgalikda davlatni idora etaylik deb, unga umid ko‘zini tikib turgan bolalik do‘stining yuzxotiri, ikkinchi tomonda − o‘z oldiga qo‘yilgan buyuk maqsadi, ulkan ijodiy rejalarining qolib ketayotgani. O‘zini adabiyotsiz, ijodiy ishlarsiz tasavvur etolmagan N. sultonga iltimos qila-qila, o‘rniga samarqandlik do‘sti, shoir Shayxim Suhayliyning tayinlanishiga erishadi. Uning maqsadi saroyda maslahatchi bo‘lib qolib, ko‘proq ijodiy ish b-n shug‘ullanish edi. Lekin 1471-y.ning kuzida muhrdorlik vazifasidan iste’fo bergan N.ni 1472-y.ning yanvarida Husayn Boyqaro yanada yuksak lavozimga − bosh vazir mansabiga ko‘tarib, “Amiri kabir” − “Ulug‘ amir” unvonini beradi. Shoir o‘z lavozimidan xalq manfaatini himoya etish, zolim va poraxo‘r amaldorlarga qarshi kurashish, yurtni obod, elni ma’mur qilish maqsadida foydalandi. Shuning u-n ham Sharafiddin Roqimiy “vazirlik ishlarida shu darajada mahoratga ega ediki, sobit tadbiri b-n davlat oyinasi yuzidan kudurat zangini aritdi”, – deb yozgan edi. Ijodiy jarayon bilan mashg‘ul bo‘lgan N. 1481-y. vazirlikdan iste’fo beradi. Lekin biror rasmiy mansabga ega bo‘lmasa ham, Sulton Husayn Boyqaroning eng yaqin do‘sti va maslahatchisi sifatida N.ning saroyda ta’siri hamisha kuchli edi. 1487-y. esa u Astrobodga hokim qilib tayinlanadi.

N. Astrobodda ikki yil faoliyat ko‘rsatib, bu yerda ham butun kuchini viloyatda tartib o‘rnatish, aholi osoyishtaligini ta’minlash, obodonchilik ishlarini yo‘lga qo‘yish, qo‘shni davlatlar b-n munosabatlarni yaxshilashga sarfladi. Qizg‘in ijodiy ish b-n shug‘ullandi. Astrobod mamlakatning iqtisodiy jihatdan boy va strategik jihatdan muhim viloyat bo‘lganligi u-n unda, asosan, shahzodalar yoki Sulton Husaynning eng yaqin kishilari hokimlik qilib kelganlar. Binobarin, N.ning Astrobodga hokim etib tayinlanishini uni poytaxtdan chetlatish yoki surgun qilish deb tushunmay, balki Husayn Boyqaroning qo‘shni davlatlar hukmdorlari b-n munosabatlari keskinlashgani tufayli chegaralarni mustahkamlash maqsadi b-n izohlash mumkin. O‘zidan so‘ng Astrobod hokimi bo‘lgan Badi’uzzamon Mirzoga yozgan maktubida keyinchalik N.ning o‘zi ham unga chegaralarni mustahkamlash va qo‘sh-

ni davlatlar hukmdorlari xatti-harakatlaridan ko‘z-quloq bo‘lib turishni buyuradi.

Astrobod Sulton Husayn saltanatining g‘arbiy chegara hududida joylashgan Jurjon viloyatining markazi bo‘lib, bu davrga kelib, oqquyunlilar b-n o‘zaro ittifoq tuzgan safaviylar sulolasi unga xavf tug‘dira boshlagan edi. Vaziyat bu yerga ham xalq, ham qo‘shni davlatlar hukmdorlari hurmat qiladigan mohir siyosatchi va nufuzli amaldorni yuborishni taqozo etadiki, o‘z-o‘zidan bu vazifaga eng munosib nomzod N. edi. 1488-y. Sulton Ya’qub tomonidan safaviylar yetakchisi Shayx Haydar jangda o‘ldirilib, qizilboshlar qo‘shini tarqatib yuborilgach, bu xavf barham topadi va shundan keyingina xotirjam tortgan Husayn Boyqaro do‘stining Hirotga qaytish haqidagi iltimosini qondiradi. Shundan so‘ng N. biror rasmiy vazifani qabul qilmay, ilm-u ijod b-n shug‘ullanadi. Lekin u muqarrabi hazrati sultoniy unvoniga ko‘ra, davlat xizmatidan hech qachon chetda turmagan.

N. o‘z siyosiy faoliyatining boshidanoq Husayn Boyqaroni adolat b-n siyosat yuritish, xalqqa zulm qilmaslik, mamlakatni xarob emas, balki obod qilish, iqtisodni ko‘tarishga, savdo-sotiqni rivojlantirish, fan va madaniyatni qo‘llab-quvvatlashga da’vat etib keldi.

Husayn Boyqaro hokimiyatni qo‘lga kiritganidan keyin o‘tgan salkam qirq yillik hukmronligi mobaynida biror yurtga istilochilik yurishlarini uyushtirmadi, aksincha, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yuksaltirish, obodonchilik va bunyodkorlik ishlarini olib borish, fan, madaniyat adabiyot va hunarmandchilikni rivojlantirish, iste’dod egalarini qo‘llab-quvvatlash yo‘lini tutdiki, bunda N.ning xizmati va ta’siri katta.

N. Husayn Boyqaro davlatini mustahkamlash, uning Movarounnahr, Eron, Iroq, Ozarbayjon b-n do‘stona aloqalarni yo‘lga qo‘yish, o‘zaro urushlarning oldini olish, podshoh va o‘g‘illari o‘rtasidagi nizolarni bartaraf etish, mamlakatda tinchlik va tartib o‘rnatish, xalq osoyishtaligini ta’minlash, adolatni ustuvor etish, soliqlarni muayyan me’yorga solish, qishloq xo‘jaligi, hunarmandchilik va savdo-sotiqni rivojlantirish, obodonchilik va bunyodkorlik ishlarini kuchaytirish, ilm-fan, madaniyat va san’atga e’tibor berish, qisqasi, mamlakatning gullab-yashnatish yo‘lida butun kuch-g‘ayratini sarf etdi. Husayn Boyqaro davrida Hirot Sharqning ilm va madaniyat markaziga aylanishida N.ning xizmatlari katta.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Т., 2015; Сирожиддинов Ш., Юсупова Д., Давлатов О. Навоийшунослик. Дарслик. – Т., 2018; Алишер Навоий: Қомусий луғат. 1–2-жилдлар. – Т., 2016; Ҳаққул И. Навоийга қайтиш. 1 китоб. – Т., 2011; Ҳаққул И. Навоийга қайтиш. 2 китоб. – Т., 2016.*

Ab.A.

NAVOIYNING SHAXSIYATI N. ijodining boyligi va yuksakligi ko‘p jihatdan uning shaxsiyati b-n bog‘liq. Xondamir N. haqidagi asariga “Makorim ul-axloq”, ya’ni “Yaxshi xulqlar egasi”, – deb nom qo‘ygan. Binobarin, ijodkor shaxsining buyukligi uning g‘oya va qarashlarining hamda ijodiy merosining ahamiyatini ta’minlaydi.

N. shaxsiyati XV asrning ikkinchi yarmida Xuroson va Movarounnahrda temuriylar hukmronligi davrida, ichki ziddiyatlar keskinlashgan sharoitda, mamlakatdagi ilg‘or fikrli kishilar markazlashgan davlat u-n kurashib, mamlakat iqtisodiyoti va madaniyatini rivojlantirishga intilayotgan bir vaziyatda shakllandi. N. shaxsiyati, dunyoqarashi shakllanishida uning o‘zidan oldin yaratilgan ilg‘or fikrli Sharq she’riyati va madaniyatini chuqur mutolaa qilgani va egallagani katta mohiyat kasb etadi.

Oilada ikkinchi farzand bo‘lgan Alisher juda yoshligidan o‘tkir zehni, teran aql-idroki va odobi b-n ajralib turardi. Voqean, Alisher uch yarim yoshida mashhur fors-tojik shoiri Qosim Anvor (1355–1434)ning g‘azallaridan yodla-

gan, besh-olti yoshida esa ulug‘ shoir Farididdin Attor (1145–1221)ning “Mantiq ut-tayr” dostonini boshdan-oxir yoddan bilardi. Ulug‘ shoir olti yoshida Amir Temurning tarixchisi, mashhur olim va shoir Sharafiddin Ali Yazdiy (vafoti 1454) b-n suhbatlashadi. O‘z savollariga yosh Alisherdan biyron javoblar eshitgan Yazdiy hayratga tushib, uning aqliga tasanno o‘qiydi va duo qiladi.

N. juda yoshligidan o‘qishga qiziqardi. U tinmay o‘qir, o‘qiganlarining hammasini yodida saqlab qolardi. Voqean, “F.Sh.” dostonidagi Farhodga nisbatan aytilgan quyidagi fikrlar N.ning o‘ziga ham tegishli edi:

O‘qub o‘tmak, uqub o‘tmak shiori,
Qolib yodida safha-safha bori.

Maz.: U (Farhod) o‘ziga o‘qib o‘tish b-n birga, uqub o‘tishni (o‘qiganlarini tushunib olishni) ham shior qilib olgan, o‘qiganlari hammasi sahifama-sahifa yodiga o‘rnashib borar edi.

N. o‘qish u-n yoshligida Hirotdan avval Mashhad (Eron)ga, so‘ng Samarqandga bordi. Ulug‘ shoir bu shaharlarda zamonasining barcha fanlariga doir bilimlarni egalladi. Adabiyotga, she’riyatga g‘oyat qiziqqanligi va o‘zi ham shoir bo‘lganligi u-n juda ko‘p she’rlarni yodladi. O‘zining aytishicha, 18–20 yoshlarida ellik ming bayt yoki yuz ming misradan ortiq she’rni yoddan bilardi. Ulug‘ shoir yigitlik davridayoq she’riyatda shunday kamolga yetgan ediki, boshqa shoir o‘qiyotgan she’rning uslubiga qarab, uning misralari qanday qofiya b-n yakunlanishini oldindan aytib bera olardi. Bu fikr mubolag‘a emas. Darvoqe, Hirotning Puli Molon va Bog‘i Safed degan joylarida bo‘lgan she’rxonlikda Mavlono Ayoziy degan shoir o‘qiyotgan qasidaning qofiyalarini oldindan aytib, hammani hayratga solgan edi.

N. shaxsiyatining yana bir muhim tomoni uning ilm va ma’rifatga, adabiyotga cheksiz fidoiyligi, yoshlikdan ilm asoslarini puxta o‘zlashtirishga intilganligida namoyon bo‘ladi. U o‘zida bo‘lgan katta adabiy iste’dodni to‘g‘ri sezgani holda, yoshlikdan iste’dodini imkon qadar to‘la yuzaga chiqarish yuzasidan muhim ishlarni amalga oshirgan. Ilm va she’r ahli b-n yaqin muloqotda bo‘lgan, katta qiyinchiliklar hisobiga Mashhad va Samarqand madrasalarida ta’lim olgan. N. “Sayyid Hasan Ardasherga she’riy maktub”ida yozadi:

Urarmen qadam toki borg‘uncha gom,
Ki, bo‘lg‘ay muyassar menga ushbu kom.
Agar bo‘lsa bu yo‘lda umrum talaf,
Chu bu yo‘ldadur ul, ham erur sharaf.

N. shaxsiyatidagi bunday sobitqadamlik odamlarda kam uchraydigan katta mehnatsevarlik b-n qo‘shilib, oradan ko‘p vaqt o‘tmay, o‘zining mevalarini bera boshlagan. N.ning bir o‘tirganda 100-200 bayt she’r yoza olishi (“Aning kunda yuz bayti halvom erur...”), o‘z ichiga besh dostonni olgan “X.”dek buyuk asarning ikki yilda yozib tugallashi, vazirlikdan keyin qisqa bir muddatda 1000 ga yaqin she’r yozganligi va h.k. N. shaxsiyati iste’dodi b-n bog‘liq yorqin hodisalardir.

N. tabiatan kamtar va andishali kishi edi. Uning haddan tashqari kamtarligi zamondoshlarini hayratga solar va havasini keltirardi. Tarixchi Mirxond (1433–1498)ning “Ravzat us-safo” (“Soflik bog‘i”) asarida yozilishicha, Sulton Husayn Boyqaro 1472-y.ning yanvar oyida N.ni vazirlik vazifasiga tayinlab, “barlos umarosi (amirlari)dan Amir Muzaffar barlosdan boshqa biron kimsa Amir Alisherdan avval (oldin va yuqoriga) muhr bosmasin”, – degan farmon chiqaradi. Shundan so‘ng N.ga muhr bosishi lozim bo‘lgan hujjatni olib kelganlarida, ulug‘ shoir uning shunday joyiga muhr bosadiki, undan pastida joy qolmaydi. Bu hujjatga boshqalar ham muhr bosishlari lozim bo‘lib, ularning joyi N. muhridan quyiroqda edi. Biroq, N. muhr bosgan joydan quyiroqda muhr bosish u-n o‘rin qolmaganini ko‘rgan saroy a’yonlari N.ning kamtarligidan hayratga tushib, unga tasanno o‘qiydilar. Chunki shu paytgacha hujjatlarning yuqori qismiga muhr bosishga hamma intilar, biror amaldor o‘z muhri boshqalarnikidan pastda bo‘lishini istamas edi. Mirxond yozadi: “Keyin

sof ko‘ngillik Amir (N.)ning muhri bosilgan yer muhrga ega bo‘lgan har bir mansabdor orasida talash bo‘ldi va ularning har biri o‘sha yerga muhr bosish ishtiyoqida bo‘ldi”.

N. Sulton Husayn Boyqaroning eng yaqin do‘sti va uning oila a’zolarining ham yaqin kishisi hisoblanardi. Chunki bu yaqinlik faqat N.ning o‘zi b-n bog‘liq bo‘lmay, temuriylar xonadoniga yaqinlik ulug‘ shoirning ota-bobolari b-n ham vobasta edi. Shunga qaramay, N. shoh xonadoniga munosabatda hamisha andisha b-n ish tutardi. Ulug‘ shoirning quyidagi misralari ham uning nihoyatda andishali va odobli inson bo‘lganini ko‘rsatadi:

Shah harimida necha topsang Navoiy ehtirom,
Bilgil o‘z haddingni-yu behad rioyat qil adab.

Maz.: N. shoh saroyi va xonadonida har qancha ehtiromga sazovor bo‘lsang ham, o‘z haddingdan oshmay, odob qoidalariga nihoyatda rioya qilgin.

N. shaxsiyatida dadillik b-n murakkab sharoitlarda ehtiyotkorlik, talabchanlik xususiyatlari ustuvorlik qiladi. U ziddiyatlarga to‘la shoh saroyida ko‘p yillar xizmat qilar ekan, tilga ehtiyot bo‘lish, ortiqcha harakatga yo‘l qo‘ymaslik haqida “V.”da shunday deydi: “...ko‘rmas nimadin ko‘zumni nargis ko‘zidek ko‘r va eshitmas nimadin qulog‘imni binafsha qulog‘idek kar va tutmas nimadin ilgimni chinor ilgidek shal va bormas erdin ayog‘imni sarf ayog‘idek lang va aytmas so‘zdin bataxsis maxfiy asrorekim, gul xurdasi masallik g‘unchadek ko‘nglumda amonat topshurdi – ifshosidin tilimni savsan tilidek gung qildim”.

N.ning yuksak axloqli inson ekanligini uning asarlaridagi tasvirlardan ham bilish mumkin. Chunonchi: ulug‘ shoirning “S.S.” dostonidagi shoh Bahrom Diloromning go‘zalligini eshitgach, unga oshiq bo‘lib, qizni Chin mamlakatidan oldirib keladi va u b-n birga bo‘ladi. N. Bahrom va Diloromning visol damlarini tasvirlar ekan, yozadi:

Yor mahvash harif oshiq-u shah,
Qilganin bilmagan erur ablah.
Elga so‘z der mahal bu yer-o‘qdur,
Manga lek ul salohiyat yo‘qdur.

Maz.: Mahvash yor b-n oshiq shoh ikkisi bu yerda nima ish qilganini bilmaganimiz a’lodir. Balki el xuddi shu yerda mening bir fikr aytishimni istar, ammo, afsuski, bunday salohiyat menda yo‘qdir. Uzr!

Demak, N. talqinicha, oshiq va ma’shuqaning visol damlarini yalang‘och tasvirlash odobdan emas va bunday tasvirga yo‘l qo‘ygan ijodkor andishasizdir.

N. o‘ta rahmdil odam ham edi. Ulug‘ shoir hatto chumoliga ham ozor bermagan. Voqean, Xondamirning “Makorim ul-axloq” asarida hikoya qilinishicha, kunlarning birida N. asr namozidan keyin tezda masjiddan chiqib ketadi. Aslida u har doim namozga kelmaganlarni surishtirardi. Ulug‘ shoirning bu odatini bilganlar uning tez ketib qolganidan hayron bo‘lishadi. Bir muddatdan keyin N. qaytib keladi va masjiddagilarga shunday izoh beradi: “Men masjidga kelayotganimda falon joyda tahorat qilgan edim, namoz safida turganimda yelkamda bir chumoli ko‘rdim. Bildimki, tahorat qilgan joyda u menga ilashgan ekan. Mabodo u mening yelkamdan tushib ozor topsa va uyasining yo‘lini topolmasa va shu sababdan uvoliga qolarman, deb qo‘rqdim. Shuning u-n, namozdan keyin tezlik b-n tahorat olgan joyga borib, uni uyasi og‘ziga qo‘ydim va ozor yetkazish tashvishidan qutuldim”. N.ning gapini eshitganlar uning rahmdilligidan hayratga tushib, unga rahmat aytishdi va duo qilishdi.

N.ning rahmdilligini uning o‘z asarlaridagi qahramonlariga munosabatida ham ko‘rish mumkin. Ulug‘ shoir “F.Sh.”, “L.M.” dostonlaridagi sevimli qahramonlari Farhod, Shirin, Layli, Majnun kabilar vafot etganda, bundan, avvalo, o‘zi ta’sirlangan va zor-zor yig‘lagan edi. M-n, N. “L.M.” dostonidagi qahramonlarining fojiali taqdiridan o‘zi ham g‘oyatda ta’sirlangan va asarini yig‘lab-yig‘lab tugatgan edi:

So‘gin nechakim uzattim oxir,
Yig‘lay-yig‘lay tugattim oxir.

Maz.: Bu motamnoma (“L.M.” dostoni)ni qanchalik cho‘zgan bo‘lsam, shuncha motamzada bo‘ldim, nihoyat, uni yig‘lab-yig‘lab tugatdim.

N. rahmdil bo‘lishi b-n birga, g‘oyat insonparvar ham edi. Moddiy jihatdan qiynalgan har qanday kishi ulug‘ shoirdan ko‘mak so‘rab kelsa, N. albatta, undan o‘z yordamini ayamasdi. Aksari odamlar N.ning bu fazilatini yaxshi bilishar, shu sababli qiynalgan paytlarida faqat unga murojaat qilishardi. Chunonchi, butun umr qiynalib yashagan shoir Mavlono Qabuliy vafoti oldidan mahallasidagi odamlarni chaqirib, o‘zining hech narsasi yo‘qligini, mabodo vafot etsa, janozasi xarajati u-n N.ga murojaat qilishlarini iltimos qiladi. Uning vasiyatini N.ga yetkazishadi. Mavlono Qabuliy vafot etganda, N. uning vasiyatini to‘la bajaradi. Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin. N.ning o‘zi bir kishini qanoatlantiradigan oziq-ovqat, kiyim-bosh va uy-joy b-n umr o‘tkazar, qolgan barcha mol-mulkini boshqalarga sarflardi.

Xondamirning yozishicha, davlat mansablarida ishlagan bo‘lsa-da, podshoh va xazinadan hech nima olmasdi. Aksincha, podshoh, shahzodalar, amirlar va boshqalarga ko‘plab hadyalar berardi. Voqean, bir safar podshoh Qandahorga jo‘nagan paytida N. unga 25 tuman (250 ming) kumush, ming botmon (8 ming pud) ipak, ming xarvor g‘alla (har birining og‘irligi taxminan 80-100 kg bo‘lgan ming qop bug‘doy) hadya qiladi. Yana 100 dinor oltinga yaqin mablag‘ni haram ahli va amaldorlarga ulashib beradi. Ulug‘ shoir har kuni bir necha ming kambag‘allarga tushlik ovqat va har yili eng yupun 2000 dan ortiq kishiga qishlik kiyim berardi. Ba’zan xalqqa solingan davlat solig‘ini o‘z yonidan to‘lab yuborardi. Darvoqe, 1500-y.ning boshida Hirot va uning atrofidagi aholiga solingan 100 ming dinor soliqning 50 ming dinorini o‘z yonidan to‘lab, xalqni og‘ir mashaqqatdan qutqaradi.

N.ning nihoyatda saxiyligini bilganliklari u-n hamma unga yordam so‘rab murojaat qilar va undan istagan yordamini olardi. Chunki N. nihoyatda badavlat edi. Uning bir kunlik daromadi 18 ming dinorni tashkil etardi. Ulug‘ shoir daromadining aksari qismi esa el-yurt farovonligi, obodonligi va tinchligi u-n sarflanardi.

N. nihoyatda chuqur fikrlaydigan va hozirjavob kishi edi. U hamisha suhbatdoshining so‘zlarini bo‘lmasdan tinglar va umuman, suhbatdoshiga hurmat va samimiyat b-n munosabatda bo‘lardi. Shu b-n birga, ba’zan o‘rni kelganda, suhbatdoshining gaplari asosida unga hazil qilar, shunda ham suhbatdoshini ranjitmasdi. Xondamirning yozishicha, mashhur sozanda Mavlono Alishoh bir kuni N.ning oldiga kelib, olti oylik maoshini birdaniga olishga farmon berishini so‘raydi. N. uni bu fikrdan qaytarmoqchi bo‘lganda, Mavlono Alishoh o‘jarlik qilib, “siz farmon beravering, pulni olay, bordi-yu o‘lib qolsam, go‘r-kafanimga sarflanadi” deydi. Uning gapidan hayratlangan N. hazil qiladi: “O‘ligi ham bir balo, tirigi ham bir balo, degani siz ekansiz-da”. Mavlono Alishohga bu so‘zlar og‘ir botmaydi. Chunki uning intilishi shunday gapni taqozo etardi. N. Mavlono Alishoh o‘ta muhtojlikdan shu qarorga kelganini his qiladi va unga yordam beradi.

N. ishonuvchan inson edi. U hammaga ishonardi. Chunki ulug‘ shoirning qalbi nihoyatda toza, fikri musaffo edi. Odamlar esa uning ishonuvchanligidan, ko‘nglining pok va samimiyligidan ham o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanib qolishardi. M-n, N.ning “V.” asarida yozilishicha, undan “tirik kishisini o‘likdek yotqizib, kafan bahosini olganlar” ham bo‘lgan ekan.

N.ning o‘z davridagi adabiyot va madaniyat namoyandalaridan A.Jomiy, Pahlavon Mahmud, Sayyid Hasan Ardasher, Shayxim Suhayliy kabilar b-n umrining oxiriga qadar do‘st va hamkor bo‘lgani N. shaxsiyatining eng go‘zal qirralaridan biridir.

N. sadoqati va muhabbati kuchli inson edi. Uning sadoqati va muhabbatining komilligini Vatan, xalq, ona tili, she’riyat, ilm-fan va do‘st-

lariga munosabatida ko‘rish mumkin. N. ularning hammasiga umrbod sadoqatli bo‘lib qoldi. Chunki ularning barchasiga yuksak muhabbat, hurmat va ehtirom b-n qarardi. Shuning u-n ham u Vatan va xalqining eng ardoqli farzandiga aylandi. Ona tilining buyukligini ko‘rsatib, she’riyat sohibqironi darajasiga ko‘tarildi. Buyuk shoir bo‘lishi b-n birga, buyuk olim ham bo‘ldi. Xalqlar, millatlar va adabiyotlar do‘stligining ramziy timsoli bo‘lib qoldi.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 1960; Ҳайитметов А. Юксак фазилатлар соҳиби. Ҳаётбахш чашма. – Т., 1974.*

Ab.H.

NAVOIYNING ESTETIK QARASHLARI N. o‘z zamonasining buyuk shoirigina bo‘lib qolmasdan, yirik madaniyat homiysi ham bo‘lib, u shu davrdagi Abdulqodir Noyi, Qulmuhammad Shayxiy, Husayn Udiy, Shohqulli G‘ijjakiy, Mavlono Qosim Rabboniy, Darvesh Ahmad Qonuniy, Xoja Yusuf Andijoniy, Ustod Shodiy, Mavlono Najmiddin Kavkabiy kabi muzikantlar, Behzod, Mirak, Naqqosh, Shoh Muzaffar, Mahmud Muzahhib, Qosim Ali Chehrakushoy, Mavlono Hoji, Muhammad Naqqosh, Darvesh Muhammad ibn Muhammad Mo‘min, Sulton Muhammad kabi rassomlar va naqqoshlar, Sulton Ali Mashhadiy, Abduljamil Kotib, Abdullo Marvarid, Abdusamad Badaxshiy kabi xattotlar b-n ham g‘oyat yaqin munosabatda bo‘ldi, ularning tarbiyasi b-n faol shug‘ullanadi. Binobarin, N. ning estetik qarashlari o‘z davri adabiyoti, san’ati b-n chambarchas bog‘langan bo‘lib, o‘zida bu davr adabiyoti va san’ati taraqqiyotining ichki qonuniyatlarini, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlar, xalqchillik va insonpavarlik mohiyatini yorqin aks ettiradi. M-n, N. “M.N.” tazkirasida shogirdi Qulmuhammad haqida, uning yuksak musiqiy iste’dodi haqida gapirar ekan, uning “Nur” ismiga yozgan quyidagi muammosini keltiradi:

Xush on mutrib, ki sozi xush navozad,
Yakero aznavo xush xushhol sozad.

Tarj.: Shunday mutrib yaxshiki, u ajoyib sozini chalib, o‘zining yaxshi kuyi b-n (dillarni) xushhol eta bilsa. N.ning estetik qarashlari uning badiiy adabiyot, xususan, she’riyat masalalariga munosabatlarida yaqqolroq ko‘zga tashlanadi. Ulug‘ shoirning bu haqdagi mulohazalari uning adabiyotshunoslik ahamiyatiga ega bo‘lgan “M.L.”, “M.N.”, “M.A.”, “X.M.”, “M.Q.” kabi asarlarida, ayniqsa, “X.” dostonlarida, ayrim lirik xarakterdagi she’rlarida keng va chuqur ifodalangan. Bunda N. o‘z salaflaridan Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy, zamondoshlaridan Jomiy an’analariga rioya qilib, adabiy an’ana, badiiyat, janr, til va obraz masalalariga maxsus boblar ajratgani, bu masalalar izohi va tahliliga g‘oyat sinchkovlik va bilimdonlik b-n munosabat bildirgani ma’lum. Bunga “H.A.” dostonining kirish qismidagi “So‘z ta’rifidakim, bashar vujudi sipehrining kavokibi jahontobi va inson zoti ma’danining javohiri serobi durur...”, “Bir necha so‘z ul ma’nidakim, so‘zdagi ma’ni jone dururkim, so‘z qolibi onsiz qolibe durur jonsiz...”, deb boshlangan boblar yaxshi misol bo‘la oladi. Shoir bu o‘rinlarda badiiy so‘zning jamiyatdagi ijtimoiy va estetik o‘rnini, inson hayotidagi ahamiyatini, badiiy asarda shakl va mazmun o‘rtasidagi munosabatlarni, o‘zaro bog‘liqlikni ilmiy aniqlik va shoirona ehtiros b-n yaxshi ochib berishga intilgan va bunga erishgan ham.

N. ko‘p vaqt “so‘z” deganda badiiy so‘zni, badiiy asarni ko‘zda tutadi va bunday “so‘z”-ni inson vujudi osmonidagi jahonni yorituvchi “yulduz” (“bashar vujudi sipehrining kavokibi jahontobi”) deb ta’riflaydi. Badiiy so‘z yig‘indisidan tarkib topgan va ma’lum bir ma’no va

mazmunni ifodalashga qaratilgan she'riy yoki nasriy asarni N. goh hayotbaxsh suvga, goh insonni qizdirib harakatga keltiruvchi o'tga, goh gulga, goh sanamga, goh bog'ga, goh jannatga qiyoslaydi. N.ga ko'ra, so'z san'atini egallagan kishilar dengizda suv ostida mahorat b-n suzib, dur va gavharlarni qo'lga kirituvchi g'avvoslarga o'xshaydilar ("Ul kishi so'z bahrida g'avvos erur, kim guhari ma'ni anga xos erur"). N. adabiy asarni "ra'no", "sho'x" deb, go'zal mahbubaga, mashuqaga muqoyasa etgan o'rinlar ham yo'q emas. Bu b-n shoir adabiy asarni hayotda go'zallikka bo'lgan eng katta bo'shliqni to'ldira oluvchi, harakatdagi bir sirli ma'naviy mavjudot sifatida baholaydi.

Ayniqsa, N.ning "H.A."da she'riyatni o'tga qiyoslashi ("she'rki, g'am tushti mening shonima, ul o't...") inson ruhiga o'tdek ta'sir ko'rsatib, yomonni yondirib, yaxshi narsalarga kishida muhabbat uyg'ota olishini ta'kidlashi xarakterlidir. She'rning mohiyatida N. inson, jamiyat hayotiga, taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatuvchi alohida bir kuch borligini "X." dostonlarida to'g'ri qayd etadi. Ulug' shoir hayotni, jamiyat taraqqiyotini nazmsiz tasavvur eta olmaydi. Bu g'oya "M.A."-ning tugallanish qismida shoirning o'ziga xitobida yaxshi ifodalangan:

To charx davoyiridin o'lg'ay ayyom,
To she'r xayolotig'a yo'qtur anjom,
To bayt tarokibidin bo'lg'ay ibhom,
Topsun nazming bila jahon ahli nizom.

N.ning she'riyatni hayot mo'jizasi kabi ulug'lashi uning hayotning o'zini ulug'lashiga har jihatdan hamohang. "S.S."da hayot haqida yuqori nafas b-n:

Xushdurur bog'i koinot guli,
Barchadin yaxshiroq hayot guli! –

degan shoir she'riyatida, badiiy asarlarida hayotning aksini ko'rishga, hayot nafasini qaytadan yaratishga intildi, badiiy asar go'zalligini, avvalo, shu real hayotni mumkin qadar haqqoniy va to'la ifodalashida ko'rdi. N.ga ko'ra, badiiy asar kichik bir she'r yoki doston bo'ladimi, bundan qat'i nazar, u o'z imkoniyati darajasida hayot haqiqatini aks ettirishi, to'g'rirog'i, jamiyat hodisalarini kishi ruhiy olamining biror noma'lum yoki kam ma'lum bo'lgan tomonini yoki shu b-n bog'liq fikr va g'oyani badiiy so'z vositasi b-n kashf etishi, izohlashi, bu b-n ayni vaqtda kitobxonlarga badiiy zavq berishi kerak. N.ning Firdavsiy, Nizomiy, Xusrav Dehlaviy dostonlari qatori Hofiz, Jomiy, Lutfiy she'rlariga ham yuksak baho berishi, ularni dur va gavharlarga qiyoslashi shundan. U asarlar, avvalo, hayot haqiqatiga yaqinligi b-n go'zaldirlar.

Binobarin, N. estetikasida haqiqatni kuylash, rost gapni yozish masalalariga keng o'rin berilishi aslo tasodifiy emas. N.ga ko'ra, bir og'iz so'z bir shingil gap, bir misra she'r ("nuqta") toshga ta'sir ko'rsatib, uni eritib yuborsa, bunga hech ajablanmaslik kerak, chunki bunday holda u haqiqat o'tidan bahra topgan bo'ladi:

Nukta suv yang'lig' eritur toshni
Topsa haqiqat o'tidan choshni.

Shundan kelib chiqib N. doim:

So'zda, Navoiy, ne desang chin degil.
Rost navo nag'mag'a tahsin degil! –

degan fikr b-n yashagan va ijod qilgan ekan, bu b-n shoir estetik fikr rivojiga to'g'ri yo'nalish berdi, uni real hayotga, mavjud adabiy muhit talablariga yanada yaqinlashtirdi.

N. estetik kategoriyalari orasida she'rda yolg'onni yozish, she'rda yolg'onning o'rni, she'rning eng yaxshisi eng yolg'oni, yolg'on hayotdagiga nisbatan ma'qul, degan tushunchalar ham bor. "M.Q."da bu holda o'qiymiz:

So'z ichraki yolg'on erur nopisand,
Chu nazm ettilar, qildi dono pisand.

Bunday o‘rinlarda N. yolg‘onni to‘qima, mubolag‘a, badiiylik ma’nolarida tushunadi va qo‘llaydi, bu ijod sohasida qonuniy bir hol.

Umuman, N.ning estetik qarashlarida adabiy asarning hayotiy mazmunga ega bo‘lishi u-n kurash birinchi o‘rinda turadi, desak xato bo‘lmaydi. Uning she’riyatni, borliqni tashkil etgan to‘rt unsurlardan, o‘t, suv, havoga emas, balki hamma narsaning paydo bo‘lishi, o‘sishi u-n zamin bo‘lgan tuproqqa, bog‘ va gulshanlardagi tomosha qilish u-n ko‘kartirilgan sarv, gul lolaga emas, balki kundalik qozonni qaynatish u-n zarur bo‘lgan o‘tinga o‘xshatishida bir olam ma’no bor edi:

Bo‘lsa o‘t-u suv-u havo dilpazir,
Ul aro tufroq ham erur noguzir.

Sarv-u gul-u lola xaridori bor,
Lekin o‘tunning dag‘i bozori bor.

Shunday qarash va fikr mulohazalar asosida N. adabiy asarlarda shakl va mazmun masalalarida Aristotel, Nizomiy, Jomiy singari izchillik b-n shakl va mazmunining ustunligi, yetakchiligini uqtiradi:

Nazmda ham asl anga ma’ni durur,
Bo‘lsun aning surati har ne durur.

Nazmki, ma’ni aniga marg‘ub emas,
Ahli maoniy qoshida xo‘b emas.

Demak, N.ga ko‘ra, adabiy asarda eng muhimi, avvalo, buyuk muhim g‘oyani olg‘a surish. Lekin bu g‘oyani badiiy jihatdan yetuk va rangbarang ifodalash, har xil vaznlardan, tasviriy iboralardan mohirona foydalanish zarur. Adabiy asarning mazmuni yaxshi (“marg‘ub”) bo‘lib, shakli ancha uyg‘un bo‘lmasa, bu asarni hech qachon durust asar deb bo‘lmaydi.

Umuman, N.ning estetik qarashlari barcha davrlar uchun muhim va ahamiyatliligi bilan xarakterlanadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ҳайитметов А. Алишер Навоийнинг адабий-танқидий қарашлари. – Т., 1959; Қудратуллаев Ҳ. Навоийнинг адабий-эстетик олами. – Т., 1991.*

Ab.H.

“NAVOIYNING QALB DAFTARI” – taniqli olim Izzat Sultonning N. hayoti, faoliyati va ijodini o‘ziga xos ravishda yoritishga bag‘ishlangan salmoqli asari. Muallif qo‘yilgan mavzuni shoirning o‘z asarlari hamda Husayn Boyqaro, Abdurahmon Jomiy, Mirxond, Davlatshoh Samarqandiy, Xondamir, Zahiriddin Muhammad Bobur, Zayniddin Vosifiy, Mirzo Haydar, Abdurazzoq Samarqandiylarning u haqdagi risola va ma’lumotlari asosida yoritadi. “Buyuk shoir, mutafakkir va davlat arbobi to‘g‘risida so‘zlash navbatini biz bu gal Alisher Navoiyning o‘ziga berdik”, – deb yozadi bu haqda I.Sulton o‘z tadqiqoti muqaddimasida. Rostdan ham, N. bugun biz b-n o‘zi haqida o‘zi suhbat qilishi mumkin. Buning u-n bizdan unga faqat muxlisona bir xizmat darkor: ajoyib badiiy asarlarida, ilmiy tadqiqotlarida, xotiralarida va zamondoshlariga yozgan sanoqsiz xatlarida N. o‘z davri, o‘z hayoti va umuman, hayot haqida, o‘z ijodi va umuman ijod, o‘z shaxsi va umuman inson haqida ko‘pgina fikrlarni aytgan; buyuk shoir hayotining guvohlari, ya’ni zamondoshlari ham u haqida yozib qoldirgan.

N.ning hayoti, ijodi, “so‘zlari, odamlar b-n muomalasi, xulqi va sajiyasi (tiynati) haqida aniq ma’lumotlar qayd etilgan; agar ana shu fikrlar va ma’lumotlar bir joyga jam etilib, N.ning uzoq hayot yo‘li pog‘onalari b-n, bugun mumkin bo‘lgani qadar bog‘lab, bir ipga tizilsa, buyuk insonning o‘zi haqida o‘zi aytgan iqrornomasi va shahodatnomasidek bir asar maydonga keladi”.

Asarlarida o‘z ichki olamini, ko‘nglini ochgani u-n ham olim tadqiqotini “N.Q.D.” deb ataydi. Tabiiyki, manbalardagi fikr-u ma’lumotlarni

o‘zaro bog‘lab, yaxlit mavzu atrofida aylantirish u-n muallif ishtiroki ham taqozo qilinadi. “Ammo bu ishda bizning rolimiz N. fikrlarining va uning hayotidagi hodisalar ma’nosining hozirgi o‘quvchi tomonidan idrok etilishini osonlashtiruvchi izohlar berishdangina iborat bo‘ldi, – deydi bu haqda I.Sulton. Shu b-n birga biz bu xolis, obyektiv fikrlarimizning doimo Navoiyning o‘z so‘zlaridan ajralib turishiga e’tibor berdik, toki o‘quvchi agar istasa, qayerda Navoiy o‘zi va qayerda biz gapirayotganimizni aniqlay olsin”.

“Har hodisaga Navoiyning o‘z ko‘zi b-n qarash va baho berish bu kitobda asosiy prinsip” bo‘lganligidan muallif o‘z tadqiqotini N.ning “Chor devon” nomi b-n xalq o‘rtasida mashhur bo‘lgan “X.M.” devonlar turkumi kabi shoir hayotini 4 faslga bo‘lib o‘rganadi. “Umr fusulining navbahori” deb atalgan 1-bobda 7-8 yoshdan (aslida tug‘ilishidan) 20 yoshgacha, “Yigitlik chashmasorining hayotbaxshligining og‘ozi” nomli 2-bobda 20 yoshdan 35 yoshgacha, “Fusulning xazoni, tiriklik bog‘ining bargrezining nishoni” deb nomlangan 3-bobda 35 yoshdan 45 yoshgacha, “Umr fusulining qishi” degan 4-bobda 45 yoshidan umrining oxirigacha bo‘lgan davrdagi hayoti va ijodini bosqichma-bosqich yoritadi.

Birlamchi manbalarga tayanilgani, shoir hayoti, faoliyati va ijodiy evolyutsiyasi tadrijiy ravishda bosqichma-bosqich yoritilgani, ma’lumotlar qiyosidagi aniqlik va xolislik, muallifning har bir hodisani mahorat b-n o‘zaro uyg‘unlashtirishi va bilimdonlik b-n ular ustidan xulosa chiqarishi, teran tadqiq va nozik tahlillarga boyligi tufayli mazkur asar hozirgacha o‘z ahamiyatini saqlab kelyapti.

Ad.: *Султон И. Навоийнинг қалб дафтари. – T., 1969.*

E.O.

NAVOIYNING QOFIYA YARATISH MAHORATI N. favqulodda noyob talanti va mashaqqatli mehnati tufayli devon tuzish shartlarini a’lo darajada bajarib, o‘zbek adabiyoti tarixida devonlarning eng mukammal namunalarini yaratgan. “X.M.”dagi eng ko‘p g‘azal yoy harfiga yozilgan bo‘lib, har bir devonda 76 tadan jami 304 ta she’r keltirilgan. Buning sababi bu belgi o‘rni b-n *y* va *i* ni anglatgani u-n bu harflar b-n tugovchi so‘zlarga ko‘p g‘azal bitilgan. Nun harfiga har bir devonda 68 tadan jami 272 ta, *r* ga 67 tadan hammasi bo‘lib 268 ta g‘azal yozilgan. Hoyi havvaz qisqa *a* va *h* ni ifodalagani u-n bu harfga ham ko‘p – 208 ta g‘azal keltirilgan. Arab-fors tillariga xos *zol, zod, sod, itqi, izg‘i, ayn* harflariga kam g‘azal keltirilgan. Sababi mumtoz o‘zbek tilida bu harflar b-n yakunlanuvchi so‘zlar kam. Devon tuzishning murakkab tomoni shundaki, har bir harfga keltirilgan g‘azal baytlari shu harfli so‘zlar b-n tugashi lozim. Bu yerda hozircha harflarga shoir tomonidan qo‘yilgan nomlar haqida to‘xtalmaymiz. Bu murakkab masala bo‘lib, alohida tadqiqotni talab qiladi. M-n, “N.Sh.”da *r* harifiga 66 ta g‘azal keltirilgan bo‘lsa, ulardan atigi 14 tasida zuhur, mashhur mastur, mahmur, tasvir, ta’sir, safar, shakar, g‘urur, xabar, bor kabi o‘zak va qo‘shimchaga ega bo‘lmagan so‘zlar qofiya bo‘lib kelgan. Qolgan 52 ta g‘azal qofiyalari o‘zak va qo‘shimchali so‘zlar vositasida yasalgan. 52 ta g‘azal qofiyalarida *r* harfli quyidagi 7 ta qo‘shimcha ishlatilgan:

1. 3 ta g‘azalda = **lar:** unutmushlar, sovutmushlar, ovutmushlar, shohlar, hamrohlar, mohlar, choralar, poralar, xoralar.

2. a) 23 ta g‘azalda = **dur:** kamdur, alamdur, karamdur, shirindur, taskindur, bandidur, dushmandur, yarashibdur, vatanlardur.

b) 5 ta g‘azalda = **tur:** yo‘qtur, tushubtur, bo‘lubtur, olibtur, qolibtur.

3. 9 ta g‘azalda = **ur:** qo‘zg‘alur, chayqalur, tovshalur, topilur, sanchilur, tebranur, o‘rganur, borur, erur.

4. 1 ta g‘azalda = **durur:** maydurur, kuldurur, kuydirur.

5. 3 ta g‘azalda = **mudur:** kavsarimudur, sog‘arimudur, giryonmudur, afshonmudur, mehnatmudur, qomatmudur, jannatmudur.

6. 9 ta g‘azalda = **ar:** chiqar, aylar, yetar, ichar, kiyar.

7. 1 ta g‘azalda = **dindur:** gavharindindur, axtarindindur, anvarindindur, kavsarindindur.

Ko‘rinib turibdiki, shoir o‘zbek tilining ichki imkoniyatidan foydalanib, g‘azallar sonini keskin oshirishga muvaffaq bo‘lgan. Masalaga ana shu nuqtayi nazardan qaraydigan bo‘lsak, N. g‘oyat murakkab ishni amalga oshirgan. Bu og‘-ir, mashaqqatli ishni hal qilishda shoir quyidagi usullardan foydalandi:

Tildagi mavjud so‘zlardan foydalandi – N. g‘azal qofiyalariga so‘zlar izlar ekan, mumtoz o‘zbek tilidagi mavjud so‘zlardan, to‘la foydalandi. Buni “X.M.” tarkibiga kiruvchi “G‘.S.”, “N. Sh.”, “B.V.”, “F.K.” devon qofiyalarida ishlatilgan so‘zlardan ko‘rish mumkin. M-n: “B.V.” devonidagi 322-g‘azal qofiyasida shoir etak, kesak, ko‘mak, to‘shak, elak, go‘balak, gazak so‘zlarini ishlatib, bu g‘azalni *k* harfi b-n tugovchi she’rlar guruhiga kiritadi. “G‘.S.”da, 163-g‘azalda ixtiyor, navbahor, qaror, oliftavor, xumor, poydor, xoksor so‘zlarini ishlatib, bu g‘azalni *r* harfi b-n tugovchi g‘azallar tarkibiga kiritadi.

“N. Sh.”dagi 298-g‘azal qofiyalarida bog‘, rog‘, dimog‘, charog‘, tog‘, farog‘, bulog‘ so‘zlarini ishlatar ekan, bu g‘azalni “g‘ayn harfining g‘azolalarining g‘avg‘osi “Navodir”din” g‘azallari qatorida beradi.

Ayrim g‘azal qofiyalarida boshdan-oyoq bir so‘z ishlatilgan. “B.V.”da 315-g‘azalda oshiq, 363-g‘azalda tong, 392-g‘azalda ko‘ngul, “N. Sh.”dagi 317-g‘azalda yiroq, 392-g‘azalda ko‘ngul, 363-g‘azalda tong, 504-g‘azalda o‘lsun so‘zlari shular jumlasidan. Alohida ta’kidlash lozimki, N. g‘azallarda turkiy-o‘zbek so‘zlaridan to‘liq foydalangan. Arabcha-forscha *ayn, itqi, izg‘i, sod, zod* harflarida g‘azal qofiyalarida arabcha-forscha so‘zlar ishlatgan. M-n.: “B.V.”dagi 271-g‘azalda *sod* harfiga keltirilgan g‘azal qofiyalarida xalos, xavos, g‘avvos, raqqos, qasos, ixlos, xos, “B.V.”dagi “fi harfining fitnalarining fusuni “Badoye’” din”da daf, xalaf, najaf, vuquf so‘zlari ishlatilgan.

So‘zning fonetik variantlaridan foydalandi – Shoir “X.M.”da so‘z variantlaridan to‘liq foydalangan. G‘azal qofiyasi *g‘* ni talab qilganda yaproq so‘zini ishlatsa:

Za’if jismim aro bir-birining ustida dog‘,
Qurug‘ yig‘och uzadur yaproq ustiga yaprog‘.

Bu so‘zning *q* li varianti yaproq ni *q* li g‘azallar tarkibida beradi:

Bog‘ ichra senga sochti gul oq-u qizil yafroq,
Shah boshig‘a andoqkim el oq-u qizil yormoq.

Xuddi shuningdek, chashma ma’nosidagi bulog‘ni “N.Sh.”da 298-g‘azalda *g‘* li:

Yor ayog‘in suvg‘a chun soldi,
ko‘zuma to‘ldi sirishk,
Ey Navoiy, buyla bolig‘qa kerak mundoq bulog‘.

Buloqni 311-g‘azalda *q* li so‘zlar qatorida ishlatadi:

Ey Navoiy, bu biyobon qat’in oson aylading,
Ashkdin mundoqki har manzilda chekting
yuz buloq.

So‘zning uzun-qisqa variantlaridan foydalandi – N. qofiya va bo‘g‘in talabi b-n ayrim so‘zlarni ikki: to‘liq va qisqa shakllarda ishlatadi. “F.K.”dagi 480-g‘azalda erkin so‘zini ishlatsa:

Bu kecha hajr kuni shomi qiyirgunimu erkin,
Yo‘q ersa sa’b g‘amim do‘zaxi tutunimu erkin?

488-g‘azalda uning qisqa ekin variantini qo‘llaydi:

Buki ko‘nglum yorasidin oqadur, qonmu ekin?
Yo qizarib erigan suv kibi paykonmu ekin.

“N.Sh.”da 335-g‘azalda agar bog‘lovchisini ishlatsa:

Malolat bo‘lsa jononda tikoncha bordurur
jonda,
Agar har gul gulistonda ko‘rinsa bir harifi shang.

226-g‘azalda uni qisqa gar shaklidan foydalanadi:

Labi la’ling xayoli hajr aro bag‘rimni qon qildi
Jihat budur hamono qon yutardin gar
ko‘ngul qonmas.

128-g‘azalda bu bog‘lovchi garchi shaklida uchraydi:

Aqlim uchdi ayladim to kasb ishqing ilmini,
Garchi elga ilm kasbidin bo‘lur afzun xirad.

Bila (N. Sh. 409), ila (N. Sh. 384), birla (N. Sh. 385) keng ishlatilgani holda bu bog‘lovchining bilan shakli kamroq uchraydi. “F.K.”da 483-g‘azalda uchun ko‘makchisi:

Gar Navoiy hajr dashtidin o‘ta olmas, ne tong,
Yo‘l yuriy olmas kafi g‘am toshidan afgor uchun.

292-g‘azalda chun shaklida ishlatilgan:

Chun shabiston ichra qildi orazin jonona sham’,
Mash’ali mehr o‘lsakim, ko‘zga
ko‘runmas yona sham’.

Bir ma’noli affiks variantlaridan foydalandi – Shoir asarlarida affiks variantlaridan keng foydalangan: *lig‘-lig, liq-lik, maq-mak, raq-rak, qa-ka, qay-kay, qali-kali, quncha-kuncha, qich-kich, g‘ina-gina, g‘ay-gay, g‘uchi-guchi, g‘uncha-guncha.*

Qizig‘i shundaki, N. affiksning *k* li shaklini “kof harfining kofirlarining kamoli”, *-q*ni esa “qof harfining qiyomatlarining qironi” tarkibidagi g‘azallar ichiga joylashtirgan.

M-n, *-rak* qiyosiy daraja affiksini *k* li g‘azal tarkibiga kiritsa:

Ko‘kragimdur subhning pirohanidin chokrak,
Kirpigim shabnam to‘kulgan sabzadin
namnokrok.

Uning *-roq* shaklini *q* li g‘azallar tarkibida beradi:

Ey jamol-u noz-u ishvang bir-biridin xo‘broq,
Qomating marg‘ub-u andin
paykaring marg‘ubroq.

Quyidagi baytlarda shoir so‘zining fonetik tarkibi *g‘* ni talab qilganda *-g‘ay*, *g* ni talab etganda *-gay* shaklini ishlatadi. “G‘.S.”dagi 583-g‘azalda *-gay* affiksini ishlatsa:

G‘amingdin chun ajal go‘r og‘zida
jismim nihon etgay,
Mazorim lavhi darding sharhini tildek
bayon etgay.

Shu devonning 611-g‘azalida *-g‘ay* qo‘shimchasini ishlatadi:

Yor ila bir xilvat istarmenki, ag‘yor o‘lmag‘ay,
Balki bul xilvatning atrofida dayyor o‘lmag‘ay.

Shoir “N.Sh.”dagi 648-g‘azalda *-gali* affiksini ishlatsa:

Begunoh qonimni to‘kti ishq, emdi ne osig‘,
Kelsalar Farhod ila Majnun anga bildurgali.

629-g‘azalda uni *-g‘ali* shaklini qo‘llaydi:

Gul emas haryon yuzung davrida oro qilg‘ali
Halqa urmishlar jamolingg‘a tomosha qilg‘ali.

So‘z shakllaridan foydalandi – Shoir g‘azallarni harflar bo‘yicha joylashtirar ekan, ayrim harf qofiyalarida so‘zning turli morfologik shakllaridan foydalanadi. Bu usul “X.M.”da keng qo‘llanilgan. M-n: chog‘ so‘zini “F.K.”da *g‘* harfli g‘azallarda ishlatsa:

Agar kelmasa intizorim qo‘yar dog‘,
Valek iztirob o‘rtar, ul oy kelur chog‘.

m li g‘azallarda uni chog‘im shaklidan foydalanadi:

Ey Navoiy, dema: umrung
o‘tti-ishq-u maydin o‘t,
To tirikmen, ermas ushbu ikki ish aylar chog‘im.

Yana shu devonda *sh* harfida ish so‘zini ishlatsa:

Xizmatig‘a qaysi yuz birla boraykim, kelmamish,
Tiyralikdin o‘zga men yuzi qarodin o‘zga ish.

g harfidagi g‘azallarda uning ishing shaklini qo‘llaydi:

Ishing bu erdiki, jonimni olg‘asen, tanni,
Ki sudraturmen eshiktin, gar tugandi ishing.

Shoir navo so‘zini “F.K.”da “alif harfining ofatlarining ibtidosi “Favoyid”din” g‘azallari ichida ishlatsa:

Gulda yuzung latofatidin range ko‘rmasa,
Bulbulg‘a ne edi bu fig‘on birla navo.

Uning navosidin shaklini “nun harfining nozaninlarining namudori “Favoyid” din” tarkibiga kiritadi:

Dam urma bu chamanda, Navoiyki, bir gule,
Bilmas zag‘an fig‘onini bulbul navosidin.

Farzand so‘zini *dol* harfli g‘azallar ichiga joylashtirar ekan:

Jafoda bor ul oy gardung‘a monand,
Atog‘a o‘ylakim xislatda farzand.

Uning egalik affiksli farzandi shaklini *yoy* harfi ichidagi g‘azallar tarkibida beradi:

Tilarmenkim, parizode topib emdi
ko‘ngul bersam,
Bilindi: kimsaga qilmas vafo chun kimsa
farzandi.

Shoir yor so‘zini *“r”* harfi ichidagi g‘azallar ichiga kiritsa:

Dema, ko‘nglung bo‘ldimu tark aylamak
yor-u vatan,
Ne ko‘ngulni tark qilma, ne vatan, vah,
qaysi yor.

Bu so‘zning yorg‘a shaklini *he* harfi tarkibidagi g‘azallar ichida beradi:

Ey Navoiy, yordin ag‘yor mayli qildi yor,
Yor kim ko‘rdi bu yanglig‘ zulm qilg‘ay yorg‘a.

Qilmoq masdari *q* harfi b-n tugovchi g‘azallar tarkibida ishlatsa:

Ne haddim bor itingning poybo‘sin
muddao qilmoq,
Manga bastur muyassar bo‘lsa yer o‘pmak,
duo qilmoq.

Uning buyruq shakli *qil* ni *lom* harfidagi g‘azallar ichiga kiritilgan:

Qon yoshim ichra tanim to‘lg‘ang‘anin
nazzora qil,
Lolazor ichra yilon gar ko‘rmading, o‘t uzra qil.

Tun so‘zini *nun* harfi ichidagi g‘azallar ichida ishlatar ekan:

Yetkurub erdim firoqing tunlari gardung‘a un,
Shukurkim, vasling kuni emdi ne ul undur, ne tun.

Bu so‘zga *-dek* o‘xshatish affiksini qo‘shib, uni *kof* harfli g‘azallar ichida keltiradi:

Ne osig‘ ohim o‘ti ravshan zuloling kunidek,
Tiyra dudi chun meni o‘lturdi hajring tunidek.

“N.Sh.”da bo‘lmoq fe’li masdar shaklida *q* harflar tarkibidagi g‘azalda ishlatilsa:

Yuzung quyoshig‘a bu nav’ esa ayon bo‘lmoq,
Parig‘a mumkin emas xalqdin nihon bo‘lmoq.

Uning buyruq shakli bo‘lmangiz *“z”* harfining zebolarining ziynati “Navodir” din” ichidagi g‘azallar tarkibiga kiritilgan:

Do‘stlar, olam eliga yor-u hamdam
bo‘lmangiz,
Yor ila hamdam demaykim, oshno ham
bo‘lmangiz.

Yamoq ma’nosidagi *yurun* so‘zini *nun* harfi ichidagi g‘azallarga kiritilsa:

Yarolarima momug‘lar emaski, hajr ilgi,
Bu vaslalar bilan tan xirqasig‘a tikti yurun.

Bu so‘zga *-dur* qo‘shimchasi qo‘shilgach, uni *yurunlardur* shakli *r* harfidagi g‘azallar ichiga joylashtiriladi:

Jismimda tugonlarni ayb aylama, ey zohid,
Kim sabr iliki tikkan xirqamda yurunlardur.

N. *ko‘z* so‘zini *z* harfidagi g‘azallar ichida berar ekan:

Yopilmas gar menga qonlig‘ sudin ko‘z,
Senga lekin ochilmas uyqudin ko‘z.

Uning ko‘zum shaklini *m* harfi b-n tugovchi g‘azallar tarkibiga kiritadi.

Loladek yuzung xayolidin to‘la qondur ko‘zum,
Balki lola jomidek qon ichra pinhondur ko‘zum.

Shoir ayrim harflarga so‘z topishda mumtoz o‘zbek tili imkoniyatlaridan keng foydalanadi. *Ch, r, m, p* harfi b-n yakunlanadigan so‘zlarda o‘zbek tili imkoniyatlarini ko‘rsatish maqsadida ayrim so‘zlarning shu harf b-n tugaydigan shakllarini ishlatadi. Buni, ayniqsa, *aylamak* fe’li misolida yaqqol ko‘rish mumkin.

N. *aylamak* va *aylading* fe’llarini *k* li g‘azallar ichiga kiritar ekan:

Necha bo‘lg‘ay zaxmliq ko‘nglumni mahzun
aylamak
Zaxmi qonidin ko‘zum yoshin jigargun aylamak.
Donayi xoling bila ko‘nglum qushin rom
aylading
Gardi yazdiy me’jaringdin qasdig‘a dom
aylading.

Ch, r, n, m harfli g‘azal qofiyalariga so‘z topish maqsadida ushbu fe’lni *aylamon* shaklini *n*, *aylagach*ni *ch*, *aylar*ni *r*, *ayladim*ni *m* li g‘azallar ichida beradi:

Qo‘ydi yuz shomi ajal zulfin parishon aylagach,
Umr xurshidi uyoqti chehra pinhon aylagach.

Har gahki qadah no‘shin mayli mayi nob aylar,
Mujgon o‘qig‘a shishlab bag‘rimni kabob aylar.

Yo‘q damekim, ul quyosh yodida faryod aylamon,
Aylamon faryodkim, gardunni barbod aylamon.

Kimsani dard ahli deb sirrimg‘a mahram ayladim,
O‘z-o‘zumni kuch bila rasvoyi olam ayladim.

Agar g‘azal qofiyalaridagi so‘zlarga so‘z turkumi jihatdan yondashsak, u holda shoir ot, sifat, ravish, ravishdosh, fe’l va ayniqsa, sifatdoshdan keng foydalanganligini ko‘ramiz. “G‘.S.”da “shin” harfining sho‘xlarining shamoyili “G‘aroyib”din”da keltirilgan 28-g‘azal qofiyalarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, shoir o‘tgan zamon sifatdoshi *-mish* affiksidan keng foydalangan: *etmish, bo‘lmish, sipqormish, aylamish, sudranish, uchramish, o‘ynamish:*

Meni sargashta jismim dog‘ ila qon lolazor etmish,
Quyun yoxud to‘kulgan lolazor ichra guzar etmish.

Ko‘ngulkim zarnishon paykonlaringdin
notavon bo‘lmish,
Magar bu bog‘ aro ul barglar birla
xazon bo‘lmish.

Firoq-u zuhd daf’ig‘a Navoiy ishq sahbosin,
Magar to‘qquz tutub, to‘qquz falak
jomini sipqormish.

Vo‘sma birla qoshin ul mahvashki rangin
aylamish,
Ko‘zi jallodi qilichiqa yashil qin aylamish.

Kuyida men za’fdin uylaki, haryon meni,
It demayin, balki mo‘r tu’ma sudramish –

O‘lturur ilgida gar tig‘ o‘lsa oning, gar harir,
Hech bilmonkim, Navoiy ne balog‘a uchramish.
Boshima tig‘ urdi, ko‘ksum chok-u bag‘rim
qildi zaxm,
Mast bebokim dedim, qahr etmish ul
xud o‘ynamish.

Yuqoridagi misollar har bir devonga bir xil miqdorda g‘azal joylashtirish, har bir harfga ma’lum miqdorda g‘azal bitishda N.ning qofiya ustida maxsus ishlaganini ko‘rsatadi. Shoir g‘azal qofiyalariga so‘z topishda o‘zbek tili ichki imkoniyatlaridan keng foydalangan. Bu b-n u forsiy tilda ijod qiluvchi o‘zbek shoirlariga nafaqat nazariya, balki amaliy jihatdan namuna ko‘rsatdi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т., 2014.*

E.U.

NAVOIY TAXALLUSLARI Ma’lumki, ulug‘ shoir turkiy asarlarida N., forsiyda yozilgan merosida Foniy taxallusini qo‘llagan. N. taxallusiga sharh bergan olimlarning aksariyati navoning ko‘pchilikka ma’lum mazmuni – kuy, ohang, qo‘shiqqa to‘xtalishgan. Rus olimi A. Semyonov esa “Alisher Navoiy davrida Hirot san’ati” nomli maqolasida “Navoiyning o‘zi bir qancha musiqiy asarlar yaratgan zo‘r bastakor va kompozitor bo‘lgani bois adabiy taxallusga musiqa istilohidan “Navoiy”ni tanlagan”, – deb yozadi. Eski lug‘atlarda navo so‘zining o‘n beshga yaqin ma’nosiga izoh berilgan. N.shunos A.Abduqodirov navo kuy, ohang, sadodan tashqari “nasib, bahra, ishchanlik, sarishtakorlik, tartib-intizom; yangi, toza; ovozi go‘zal, tengsiz, yagona; mehribonlik, saxovat; faqir, xoksor, oshiq” kabi ma’nolarni ifodalashini qayd etgan. Borliq – olamni idrok etish va boqiy haqiqatlar mushohadasida ohang eng asosiy o‘rinni egallaydi. N. “Ne navo soz aylagay bulbul gulistondin judo” deganidek, jamiki sehrli, umidbaxsh va hassos navolarning maxzani ona diyor, zahmatkash el ishqi, muazzam va munavvar hayotdir. Qo‘liga qalam olganidan boshlab, to so‘nggi nafasigacha N.ni ilhomlantirgan, davr va zamon qarshiligi hamda qiyinchiliklarini dadil yengib o‘tishga undagan ohang – hayot ohangi, uzluksiz tarzda almashib turuvchi tiriklik tovushi edi. Shoirning navobaxsh ko‘nglida borliq – olam va tabiat musiqalari ishq va ma’rifat, haqiqat va diyonat, ayriliq va visol, shodlik va g‘am-g‘ussa kuylari b-n uzluksiz uyg‘unlashardi. Xullas, N. u-n navo go‘yo ijod manbayi vazifasini bajarardi. Hofiz O‘bahiyning “Tuhfat ul-ahbob” nomli lug‘atida navo so‘zining bir ma’nosi “sipoh” – lashkar, qo‘shin deb sharhlangan. Boshqa bir lug‘atda esa navoning davlat, sarvat, hissa ma’nolarini ham aks ettirishi qayd etilgan. “S.I.”ning oxirida shoir besh mustaqil dostondan tarkib topgan “X.”sini ham “navo” deb ta’riflaydi:

Navoiy, qilib Tengri koming ravo,
Sanga ro‘zi etti ajoyib navo.
Uzot Tengri shukri navosig‘a til,
Navo ortuq istar esang, shukr qil.

N. u-n navo go‘yo ijod manbayi vazifasini bajarardi. Navo, deyarli, hamma narsa edi, chunki uning holati, kayfiyati, ma’naviy kuch-g‘ayrati, mehr-u muruvvati – barcha-barchasini goh ayon, goh noayon navolar boshqarar, fikr hayotida turg‘unlik nima, yakranglik nima, qoloqlik va sayozlik nima – shoir bularni hech bilmasdi. Shunga qaramasdan, qalbi biri ikkinchisidan yoniq dardchil kuy va sadolar b-n to‘lib-toshganida, u o‘zini “benavo” his qilar, ayni paytda darveshlik, faqirlik, miskinlik mayllaridan orom va farog‘at topardi.

Ma’lumki, fano tasavvuf ilmida insonning yomon axloq va fe’llarni tark qilib, go‘zal fa-

zilatlarni odat qilmog‘i, Allohdan boshqa hech bir mavjudlikka nazar solmasligidir. Fitratning yozishicha, N.ning forsiy taxallusini o‘zgartirib tanitishga urinishlar ham bo‘lgan: “Navoiyning forsiy she’rlaridagi unvoni “Foniy”mi, “Fanoyi”mi degan bir masala ham bor. Hidoyat kabi ba’zi tazkiranavislar uning forsiyda “Fanoiy” atalg‘anini xabar beradi. “Boburnoma”ning ko‘rsatishiga ko‘ra “Fanoiy” emas, “Foniy”dir. Biroq N.ning o‘zi “L.T.” otli kitobida:

Forsiy nazm ichra chun surdum qalam,
Nazmning har sinfini qildim raqam.
Fayz yetkoch ul maoniydin mango,
Topti belgu nazmi “Foniy”din mango, –

deb o‘zining forsiyda “Foniy” unvonli ekanini ochiq qilib aytadi”. Foniy unvonidan ko‘zlangan niyat, uning mazmuni borasida Abdurauf Fitrat hech qanday munosabat bildirmaydi. Akad. I.Sulton esa bu taxallus mazmunini sharhlashda yuqoridagi to‘rt misra she’rning oxirgi ikki qatoriga asoslanib, bunday deydi: “Baxtni kuylovchi” ma’nosida “ul maoniydin mango, Topti belgu nazm “Foniy”din mango” so‘zlaridan ma’lum bo‘ladiki, Alisher tasavvuf ta’limotidan (“maoniydin”) xabardor bo‘lganidan boshlab, bu falsafaning dunyo o‘tar-ketar narsa, odam ham “foniy bo‘ladi”, “yo‘q bo‘ladi” degan ta’limotiga binoan, o‘zini “foniy” (“o‘tib ketuvchi, yo‘q bo‘luvchi”) deb atagan”. Xullas, I.Sultonning ta’kidi bo‘yicha “Navoiy” va “Foniy” taxalluslari shoir “dunyoqarashi va ijodidagi ikki tomonni – “bu dunyo”ni sevgani va kuylaganini, shu b-n birga, o‘sha zamonning hukmron nazarlariga binoan, kishining u dunyoga ketishi muqarrar ekanini tan olganini ko‘rsatadi”. Tasavvufda dunyo o‘tar-ketar narsa, odam ham yo‘q bo‘ladi degan bir “ta’limot” bo‘lmagan, albatta. Dunyoning o‘tkinchiligiga doir fikr-qarashlarini N. tark, ya’ni tarki dunyo, tarki uqbo, tarki hasti aqidasi orqali ifodalab bergan. Bunda esa birinchi galda fano va baqo tushunchasiga suyanilganini eslatish zarur. Ilk so‘fiylar fano va baqo istilohlarini metafizik mazmunda emas, axloqiy va psixologik ma’noda ishlatishgan. Shuning u-n ham Abdulkarim Qushayriy “So‘fiylar fano istilohi ila yomon, tuban xulqlarning yo‘qotilishiga, baqo orqali esa yaxshi va go‘zal insoniy sifatlarning yuzaga chiqarilishiga ishorat etishgan”, – deydi. Asosiy haqiqat va uning botiniy-irfoniy tomonlari o‘rganilmaganligi tufayli fano va foniylik holi to‘g‘risida bayon qilingan xato fikr-mulohazalar vaqt o‘tgan sayin ko‘payib borgan. Hatto shoirning bir g‘azalidagi baytda ifodalangan:

Deding: “Fano” nedurur? Muxtasar
deyin: “O‘lmak!” –
Ki, sharhini tilasang, yuz risola bo‘lg‘usidur, –

degan fikri b-n ham jiddiy qiziqilmagan. Dunyoga fano nigohi b-n qarab, hayot voqea-hodisalarini fano holi b-n mushohada qilish – ma’naviy hurlik va osoyishtalikka erishmoqdir. Tasavvufda bunga “huzur holi” deyiladi. Ba’zi tariqat arboblari, yirik tasavvufshunoslar fano va baqo mavzusidagi chalg‘ishlarning oldini oladigan so‘zlarni ham o‘rtaga tashlashgan. Imom Rabboniy yozadi: “Fano va baqo vujudiy emas, balki shuhudiydir. Inson Haq bo‘lmaydi va Haq taolo bilan birlasholmaydi. Qul doim qul. Rab ham abadiy Rab erur... Haqiqiy fano ilohiy bo‘lmaganni unutish, o‘zni dunyo sevgisidan qutultirish va bir quldan talab etiladigan zaylda qalbini o‘tkinchi barcha orzu-havaslardan poklashdir. Haqiqiy baqo esa Rabbining orzularini barqarorlashtirish, uning orzularini o‘z menligini yo‘qotmasdan shaxsiy orzular holiga yetkazishdir”. N. Foniy taxallusini tanlaganda o‘z menligini yo‘qotishni ko‘zlamagan. Zero, menlikning asl kamoli “fanofilloh”damas, “baqobilloh”dadir. N.ning Foniy taxallusi borasida ikkinchi bir qarash ham mavjud. Usmonli turk olimlaridan Mustafo Jonpo‘latning fikricha, N.ning turkiy tilda qo‘llagan taxallusi ham, forsiy devoni u-n tanlagan taxallusi ham, uning shu ikki tilga qarashini aks ettiradi. “Bu tillardan biri sas, ohang, kuy, navoga yo‘l ochsa, ikkinchisi, shoir ilhomini foniy-

lik chegarasidan o‘tishiga keng yo‘l bermaydi”. Bunga o‘xshash gap avval ham aytilgan. Biroq tarix uning to‘g‘riligini tasdiqlamaganidek, bugun ham uni qo‘llash yoxud ma’qullash haqiqatga muvofiq kelmaydi. N.ning ikki taxallusi ham teran, ko‘p tarmoqli ma’noga ega. Ulardan biri olib boradigan dunyo ikkinchisi anglatadigan haqiqat olamiga o‘xshamasa-da, bir-birini inkor qilmaydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Девони Фоний. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Абдуқодиров А. Амир Алишер Навоий. – Хўжанд, 2013; Родоначальник узбекской литературы. – Т., 1940; Алишер Навоий. Хамса. Қисқартириб нашрга тайёрловчи С.Айний. – Т., 1948; Фитрат А. Танланган асарлар. 2-жилд. – Т., 2000; Султон И. Навоийнинг қалб дафтари. – Т., 1969; Абдулкарим Қушайрий. Рисолаи Қушайрий. – Истанбул, 1991; Имом Раббоний. Мактуботи Раббоний. 1-жилд. – Истанбул; Исо Чалик. Муҳаммад Иқболнинг тасаввуфий тушунчалари. – Истанбул, 2004.*

I.H.

NAVOIYXONLIK – ulug‘ o‘zbek shoiri va mutafakkiri N. hayoti va ijodini, uning asarlarini o‘rganishga, targ‘ib etishga bag‘ishlangan yig‘inlar, bahslar, kechalardir. N.xonlik so‘zidagi “xon” bo‘lagi forscha “xondan” – “o‘qimoq” fe’lidan olingan. N. asarlarini o‘rganishda bunday yig‘inlarning roli katta bo‘lgan. N.xonlik N. hayot vaqtidayoq boshlanib, madaniy hayotda hamma vaqt adabiyot ahllari, xususan, yosh qalamkashlarning tarbiyasi va ijodiy o‘sishiga xizmat qilgan. Bu esa N.ning boy adabiy merosi keyingi avlod o‘zbek yozuvchilari u-n doim buyuk bir maktab rolini o‘taganini bildiradi. M-n, Zokirjon Furqat hasbi hol asarida adabiyotga havasmand qo‘qonlik do‘stlari b-n birgalikda N. asarlarini Hofiz, Bedil asarlari qatori sevib o‘qiganlarini, uning g‘azallariga tatabbu’lar bog‘laganlarini, N. hatto shoirning tushiga kirganini hikoya qiladi. N.xonlik yig‘ilishlari Qo‘qon, Andijon, Kattaqo‘rg‘on, Xiva kabi Markaziy Osiyo shaharlarida, shuningdek, Eron, Turkiya, Ozarbayjon, Afg‘oniston shaharlarida ham uyushtirilib turgan.

1919-y. 26-avgustda Toshkentda “Chig‘atoy gurungi” tomonidan N.ning hayoti va ijodiga bag‘ishlab o‘tkazilgan adabiy kechani XX asrdagi birinchi n.xonlik yig‘ilishi deb hisoblash mumkin. Bu kechaga Hamza Hakimzoda ham taklif qilingan. (H.Sulaymonov nomidagi Qo‘lyozmalar institutining “Hamza fondi”, Inv. 251). N. tavalludining 500 yillik va 525 yillik yubileylari munosabati b-n O‘zbekistonning deyarli barcha shahar va qishloqlarida maktab va oliy maktablarda, kutubxona va klublarda n.xonlik yig‘ilishlari va kechalari o‘tkazildi. Bunday kechalarda o‘zbek yozuvchilaridan Oybek, G‘afur G‘ulom, Maqsud Shayxzoda, Izzat Sultonov, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, n.shunos olimlardan Vohid Zohidov, Vohid Abdullayev, Hodi Zarifov, Hamid Sulaymonov, Porso Shamsiyev, Suyima G‘aniyeva va boshqalarning faol qatnashgani ma’lum. So‘nggi yillarda 9 fevralda N. tug‘ilgan kun nishonlanishi munosabati b-n n.xonlik odat tusiga kirdi. Bizning davrimizda N.xonlik tobora yuqori ilmiylik va ta’sirchanlik kasb etib, adabiy merosni o‘zlashtirishda katta amaliy ahamiyat qozonmoqda.

Ab.H.

“NAVOIYSHUNOSLAR JASORATI” – Ikkinchi jahon urushi yillarida qamaldagi Leningrad (Sankt-Peterburg) olimlarining N. tavalludining 500 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazishdagi faoliyatlarini yorituvchi professor Malik Murodovning risolasi.

Risola N.ning 500 yilligiga bag‘ishlangan bo‘lib, 1941-y.ning 10-12-dekabrida Davlat Ermitajida o‘tkazilgan sessiya hamda 29-dekabrda Sharqshunoslik instituti Leningrad (hozirgi Sankt-Peterburg) bo‘limida tashkil etilgan ilmiy kengash yig‘ilishlari tafsilotlari “Shaharlar hissasi”, “Hujjatlar tilga kirganda”, “Qurshov

kunlarida ham”, “Navoiy ijodining oshiqlari”, “Mangulikdir ularning nomi”, “Qalb amri bilan”, “Okopga yetib kelgan xushxabar”, “Kavkazshunos – Navoiyshunos”, “Bosilmagan kitob” kabi sarlavhalar ostida ilmiy-ommabop uslubda bayon etilgan. I.A.Orbeli, I.Y.Krachkovskiy, Y.E. Bertels, B.B.Piotrovskiy, A.N.Boldirev, B.T.Rudenko, M.N.Mox, N.F.Lebedov, V.Rojdestvenskiy kabi olim, shoir va rassomlarning ma’ruza va nutqlarining mazmuni, N. asarlaridan qilingan tarjimalari ahamiyati, ularning n.shunoslikka qo‘shgan hissalari hujjatlar asosida yoritilgan.

Ad.: *Муродов М. Навоийшунослар жасорати. – Т., 1972.*

B.M.

NAVOIYSHUNOSLIK KONFERENSIYALARI N. hayoti va ijodiy merosini muntazam o‘rganish, uni xalq orasidagi targ‘ib va tashviqini ilmiy tashkil etishda O‘zR FA Prezidiumi qoshida ta’sis qilingan Respublika Navoiy qo‘mitasi (1956) va O‘zR FA Til va adabiyot instituti (hozirgi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti)ning faoliyatlari g‘oyat diqqatga sazovordir. Ularning tashabbusi b-n 1957-y.dan boshlab har yili shoirning tug‘ilgan kuni 9-fevralda n.shunoslarning ilmiy anjumanlari – N. merosini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy-an’anaviy N. konferensiyalari o‘tkazib kelinadi. N.K.ning aksariyati uzoq yillar O‘zR FA akademigi V.Zohidov (q.) raisligida o‘tgan, uning vafotidan so‘ng I.Sultonov davom ettirgan.

N.ning 525 yilligiga bag‘ishlangan yubiley sessiyasi Samarqandda o‘tkazilgan, unga O‘zR FA vitse-prezidenti Ibrohim Mo‘minov raislik qilgan. Bu ulkan ilmiy anjumanda 42 ta ma’ruza va ilmiy axborotlar tinglangan.

1957–89-yy. mobaynida 33 marta N.K. o‘tkazildi. Ularda 635 ta ma’ruza va axborotlar tinglandi, ular yuzasidan muhokama va mulohazalar olib borildi. N.K. ishtirokchilari orasida davrimizning mashhur adib va shoirlari, chunonchi, Oybek, G‘afur G‘ulom, Maqsud Shayxzoda, olimlardan V.Zohidov, H.Zarifov, V.Abdullayev, I.Sultonov, T.Shamsiyev, A.Hayitmetov, A.Qayumov, H.Sulaymonov, B.Valixo‘jayev, A. Rustamov, N.Mallayev, G‘.Karimov, A.Abdug‘afurov, S.G‘aniyeva, S.Erkinov, Y.Is’hoqov, H.Homidiy va boshqalar bir necha daf’alab o‘z ma’ruza va ilmiy axborotlari b-n qatnashdilar.

N.K. ishida Moskva va Sankt-Peterburg, Boku va Dushanbe, Olma-ota, Ashxobod, Qozon va Nukus, Xo‘jand va Bishkek shaharlaridan kelgan olimlar, chunonchi, I.S.Braginskiy, A.Nojib, A.K.Borovkov, S.Ivanov, H.Orasli, M. Mirzoyev, B.Qoriyev, E.Ismoilov, Sh.Abilov, I. Saitov, E Shodiyev, A.Matniyozov va boshqalar N. ijodiy merosining muhim muammolari, shoir an’analarining boshqa xalqlar adabiyotiga ta’siri masalalari yuzasidan ma’ruza qildilar.

M-n, akad. Oybek “Navoiy adabiy merosining ahamiyati”, “Hozirgi davrda Navoiy ijodini o‘rganish problemalari” mavzusidagi ma’ruzalarida N. ijodiy merosining kam o‘rganilgan sohalariga e’tiborni tortgan edi. Maqsud Shayxzoda birinchi bo‘lib N. lirikasi badiiy mahorati masalalari, G‘afur G‘ulom esa N.ni yetishtirgan adabiy muhit, N. zamondoshlari, salaf va xalaflari hayoti va ijodini shoirga bog‘lab o‘rganish muammosini ko‘tarib chiqqan edilar.

N. ijodining boshqa xalqlar adabiyotiga ta’siri masalalari yuzasidan ozarbayjon adabiyoti doirasidan H.Orasli, tojik adabiyotidan A.Mirzoyev, qozoq adabiyotidan E.Ismoilov, turkman adabiyotidan B.Qorriyev, uyg‘ur adabiyotidan M.Hamroyev, R.Qodiriy, tatar adabiyotidan Sh-.Abilov, qoraqalpoq adabiyoti vakillari va boshqa olimlar jiddiy yangiliklar b-n chiqdilar. Ayni chog‘da Firdavsiy, Sa’diy, Hasan Dehlaviy, Xusrav Dehlaviy, Hofiz, Ibni Yamin, Hofiz Xorazmiy, Shayxim Suhayliy, Xoja, Lutfiy, Kotibiy, Orif Ardabili, Xotifiy, Sayfi Buxoriy, Mehri Hirotiy, Sohib Doro, Osafiy, Husayniy, Munis, Ogahiy, Muqimiy, Furqat, Avaz va boshqa shoirlar ijodi b-n N. ijodining aloqador jihatlari an’ana va o‘ziga xoslik jihatidan tekshirila boshlandi va N.K. qatnashchilari tomonidan keng jamoatchi-

lik e'tiboriga ilmiy kuzatuvlarning asosiy xulosalari yetkazib turildi. N.K. kun tartibidan N.ning muayyan adabiy markazlar ravnaqiga ko'rsatgan ta'sirining kuchi va ko'lamini belgilashga bag'ishlangan ma'ruzalar, chunonchi, "Navoiy va Qo'qon adabiy muhiti "(A.Qayumov), "Navoiy va Xorazm adabiy muhiti" (R.Majidiy), Navoiy va samarqandlik shoirlar", "Navoiyning buxorolik izdoshlari", "Navoiy va Kattaqo'rg'on shoirlari" (V.Abdullayev, B.Valixo'jayev) kabi ma'ruzalar o'rin oldi.

N.shunos olimlardan A.Hayitmetov N. ijodiy metodi, N. va Sharq renessansi, shoirning estetik ideali, N. ijodida ilmiy-fantastika, tabiiy fanlarga munosabat, N. badiiy uslubini o'rganish masalalariga aloqador maqolalar bilan N.K.da muntazam qatnashib bordi. A.Abdug'afurov N. ijodida satira va yumor, satirik mahorat, ramziy uslub masalalari yuzasidan qator ma'ruzalar qildi.

H.Zarif, N.Mallayev, M.Hakimovlar N. ijodiyoti va xalq og'zaki ijodi mavzusini chuqur o'rgandilar. S.Erkinov "F.Sh."ni, S.Narzullayeva "L.M."ni, S.Hasanov "S.S."ni qiyosiy o'rganish yuzasidan, S.G'aniyeva N. nasri, Y.Is'hoqov N. lirikasi masalalariga oid ma'ruzalar qildilar.

N. asarlarini matnshunoslik jihatidan o'rganish muammolari, deyarli, birinchi N.K.danoq tahlil qilina bordi. N.K.da shoir asarlari tili, N. ning fonetik va morfologik asoslari, N. tilining dialektal zamini, N. tilining leksik xususiyatlari haqida A.K.Borovkov, Amir Noib, S.Mutallibov, F.Abdullayev, O.Usmonov, X.Doniyorov, A.Rustamov, B.Bafoyev, X.Mamadov va boshqa tilshunos olimlarning ma'ruzalari tinglandi.

1961-y.da N.K.da Hodi Zarifov N. asarlariga izohli lug'at tuzish masalasini ilgari surgan edi. 1953-y.da P. Shamsiyev va S.Ibrohimovlar tomonidan "O'zbek klassik adabiyoti asarlari uchun qisqacha lug'at"i nashr etildi. 1972-y.da esa ikkinchi to'ldirilgan nashri e'lon qilindi.

E.Fozilov tahriri va ishtirokida katta jamoa tomonidan tayyorlangan 4 jildli N. lug'ati nashrdan chiqdi.

N.K.da shoir ijodining zamonamiz u-n dolzarb, hozirgi davr adabiyotiga ta'siri masalasi muntazam tarzda qo'yib kelindi. Bu o'rinda I. Sultonov, H.Yoqubov, L.Qayumov, S.Mamajonov va boshqa olimlarning N.K.dagi ishtiroklari g'oyat samarali bo'ldi. N.K.da shoir asarlari tarjimalarining yutuq va kamchiliklarini o'rganish muammosini S.N.Ivanov ko'tarib chiqdi. Keyingi N.K.da bu soha bo'yicha ham qator ma'ruzalar tinglandi.

N.K.da, shuningdek, shoir falsafasiga oid (V. Zohidov, M.Xayrullayev, M.Oripov) hamda N. davri me'morchiligi san'ati (G.A.Pugachenkova, M.S.Bulatov) va musiqa madaniyati (I.Rajabov), shoir asarlarining sahnaviy talqini mavzulari yuzasidan ma'ruzalar qilindi.

1975-y.da o'tkazilgan 19-N.K.da Respublikamizdagi keng ilmiy jamoatchilik b-n aloqani yaqindan mustahkamlash va ularning N.K.dagi ishtirokini faollashtirish va joylarda N. ijodini targ'ib va tashviq qilish ishlarini yanada rivojlantirish maqsadida anjumanni viloyat markazlarida o'tkazish taklif qilindi. Shulardan so'ng 20-N.K. Buxoroda, 21-Namanganda, 22- N.K. esa Andijon shaharlarida o'tkazildi va bu uch konferensiyada mahalliy olim va pedagoglardan 15 kishi ma'ruza hamda ilmiy axborotlar b-n qatnashdi.

N. ijodiy merosini keng targ'ib va tadqiq etishda N.K.ning o'rni beqiyos. Istiqlol yillarida, xususan, keyingi o'n yillikda "Navoiy va XXI asr", "Navoiy va Sharq renessansi" kabi yirik mavzularda N.K.ning tashkil etilayotgani, ularning yurtimiz va xorijda o'tkazilayotgani diqqatga sazovor hodisadir.

Hech shubhasiz, N. hayot yo'li va adabiy merosini atroflicha hamda chuqur o'rganishda, o'zbek adabiyotshunosligi fanining ajralmas qismi n.shunosligimiz yutuqlarida N.K.ning mustasno roli va ahamiyati bor, albatta.

Ad.: *Навоийшуносларнинг илмий-анъанавий илмий конференциялари. – Навоий ва ижод сабоқлари. – Т., 1981.*

S.G'., N.J.

NAVRO‘Z – N. shamsiy yil – Quyosh taqvimi bo‘yicha yangi yilning birinchi kuni (mart oyining 21-kuniga to‘g‘ri keladi). Quyosh Hamal burjiga kirgan Farvardin oyining birinchi kuni. Qadimgi falakiyot ilmiga ko‘ra, 12 burj mavjud bo‘lib, quyosh yil davomida har bir burjda bir oydan bo‘ladi. Oxirgi burj – Hutdan birinchi burj – Hamalga o‘tgan kundan shamsiy yil boshlanadi.

Navoiy ijodida N. ta’rifi, N. shukuhi tasviri alohida o‘rin tutadi. Shoirning, deyarli, barcha asarlari – g‘azallari, dostonlari, “T.M.A.”, “M.Q.”, “H.P.M.”, “M.” kabi nasriy asarlarida ham N. b-n bog‘liq fikr-u ma’lumotlari, ta’rif-u tavsiflar, obrazli iboralar, betakror qofiyalarga duch kelamiz. Bu so‘z Navoiy ijodida nafaqat N.ni, umuman, bahorni bildirib keladi. N. bayramiga afsonaviy Jamshid asos solgan. U qadimgi Eronning peshdodiylar sulolasiga mansub uchinchi hukmdori bo‘lgan. N. “T.M.A.” asarida yozishicha, u Istaxr shahrida: “uluq binoye soldikim, holo osori va nishonalari borkim, odamizod andoq yasamoq mahol ko‘runurkim, kishi ko‘rmaguncha bovar qilmas. Va ani Chihilminor derlar. Chun bu imorat tugandi, olam salotin va ashrof va akobirin yig‘ib, anda azim jashn qildi. Ul vaqtkim, quyosh nuqtai e’tidoli rub’ig‘a tahvil qilib erdi, ul binoda taxt ustida o‘lturub, adolat siyt va sadosin olamg‘a muntashir qildi va ul kunning otin Navro‘z qo‘ydi”. Navoiy o‘z asarlarida bahor fasli b-n bog‘liq tasvirlarni ham maroq b-n yozar ekan, N.ni tilga olgan va buning yorqin misoli “L.M.” dostonida bitgan “Bahor vasfi” nomli bobidir. Navoiy mazkur bobda bahorni ishq va muhabbat fasli sifatida ham baholar ekan, dostonning mavzu mundarijasidan kelib chiqib, Layli va Majnun muhabbati haqida ham go‘zal tasvirlar bitgan. U Layli tilidan bir o‘rinda “Navro‘z” so‘zini “nasimi Navro‘z” forsiy izofa shaklida (birikma) mahorat b-n qo‘llagan hamda “Navro‘z – majlis afro‘z” shaklidagi qofiyalar yaratgan. “S.I.” dostonining 19-bobida shoir “Navro‘z” so‘zini butun borliqni birdek, saxiylik b-n yashnatuvchi bahor fasli hamda tog‘-u dashtga yog‘uvchi bahorning serob qut yomg‘irlari va butun xalq umid-u shukrona b-n orziqib kutadigan yilboshi bayrami, ya’ni N. bayrami ma’nolarida san’at-korona qo‘llagan hamda adolat barchaning tengligidir, degan o‘zining ijtimoiy fikrlariga tamsil qilib keltirgan va har doimgidek ulug‘ shoir N. so‘zini qofiyaga chiqarib, “navro‘zdek – jahonso‘zdek” kabi qofiyalar yaratgan:

Adolat aro fasli Navro‘zdek,
Siyosatda barki jahonso‘zdek.

Bu o‘rinda adl, adolatni Navro‘zga qiyoslash faqat Navoiy ijodida uchraydi. Dostonning Husayn Boyqaroning kichik o‘g‘li Muzaffar Husayn mirzoga bag‘ishlangan 84-bobida esa shoir o‘zining “Allohga shukrkim, yil yaxshi kelib, baxtim, g‘ayratim, ilhomim ijodiy ishimga rivoj berib, bu shohona kitobni, ya’ni eng katta dostoni – 89 bobdan iborat “Saddi Iskandariy”ni tugatdim, tugatganda ham bezab tugatdim”, – degan shukronasini bayon etib, shahzodaga shoirona lutf, ustozlarga xos talab-u mehr b-n nasihatlar, tilag-u istaklar bitar ekan, yilning yaxshi kelishi N.dan, bahordan ma’lum bo‘lganidek, el-u yurt uning olamni yorituvchi yuzidan ko‘p umidvor, degan hayotiy xulosalarining badiiy talqinini quyidagicha tasvirlaydi:

Ulus chehrayi olam afro‘zidin,
“Bilur yil kelishini Navro‘zidin”.

Ko‘rinib turibdiki, shoir baytda irsoli masal san’ati yordamida dono xalqimizning “Yilning yaxshi kelishi bahordan ma’lum” degan maqolini o‘rinli ishlatgan. Navoiy baytda bahor so‘zi o‘rnida N. so‘zini qo‘llab, so‘z o‘yini qiladi. Birinchidan, N. ayyomiga ishora qilsa, ikkinchidan esa “afro‘zidin – Navro‘zidin” shaklda go‘zal va mantiqan izchil qofiyalar ijod qilgan hamda talmeh, tanosub san’atlari vositasida bahor chog‘i, yangi yil kirgan vaqtga, duo, tilak, niyatlar ijobat bo‘ladigan kunga ham ishoralar qilgan. Demak, shoir ushbu ishoralari b-n nafaqat shahzodani, balki butun insonlarni ezgulikka undagani shub-

hasiz. Navoiy “H.P.M.”da ustoziga nisbatan N. so‘zini qo‘llab: “Pahlavonning suhbati Navro‘z bayramicha erdi”, – deya juda go‘zal va ohorli lutf qiladi. “M.”ga kiritgan maktublaridan birinchisida bahor fasliga to‘xtalar ekan, Navoiy “Navro‘zi nasimi” birikmasini ishlatgan: “Tog‘-tog‘ niyoz raf’idin so‘ngra qof-qof ixlos yuzidin ma’ruz ulkim, bu fasldakim, N. nasimining mushkbezligi lola dimog‘in savdoyi va bahor salqinining atrengezligi bulut mizojni havoyi qilibturur, loladek savdoyilig‘din tog‘ havosi qilib, bulutdek havoyilig‘din qayo savdosi boshqa tushti”. Navoiy “M.Q.” asarining “Dehqonlar zikrida” nomli 31-faslida bobodehqonning “Qo‘shi ham ikki zo‘r pahlavon”, “Har qayon qilsalar harakat, elga ham qut yetkurur, ham barokat”, “Dehqonki, tuzlik bila dona sochar, Haq biriga yetti yuz eshigin ochar...” kabi hayotiy tasvirlar-u tushuntirishlarini bemalol shoirning bahor va N. b-n bog‘liq nuqtalari deb baholash mumkin.

Shoir g‘azallarida ham N. ta’rifi ko‘p uchraydi. “X.M.”ning o‘zida 5 ta g‘azal bevosita N. ta’rifiga bag‘ishlangan. Jumladan:

Vasl aro, ko‘rdum, teng emish bo‘yi-yu sochi,
Tun-kun teng ekan zohir o‘lur bo‘ldi chu Navro‘z.

Ushbu baytda Navoiy yorning uzun sochlari tasviriga tabiatga, N.ga xos hodisalardan biri bu – 21-martda tun va kunning teng kelishini tamsil qilgan va tamsil san’atining go‘zal namunasini yaratgan, bu esa baytdagi tasvirning hayotiy va jonli chiqishiga xizmat qilgan. Yoki:

Zulf-u ruxsor ila komimg‘a meni yetkursang,
Har tunung Qadr o‘lubon, har kunung
o‘lsun Navro‘z.

Mazkur baytda shoir agar lirik qahramon o‘z yori b-n maqsadiga yetsa, darajasi xalq orasida qadimdan mavjud bo‘lgan duo, tilak xarakteridagi Har tunung Qadr o‘lubon, har kunung o‘lsun N., degan hikmatga (ba’zi manbalarda bu duo-tilak Muhammad (s.a.v.) tomonidan aytilgani yoziladi – B.R.) hamohangligini ta’kidlagan. Shuni alohida ko‘rsatish lozimki, Navoiy har ikki baytda ham N. so‘zini har ikki g‘azalda yaratgan qofiyalar tizimida saqlay olgan.

Yoki:

Muvofiq kiydilar, bo‘lmish magar
Navro‘z ila bayram,
Chaman sarvi yoshil xil’at, mening
sarvi ravonim ham.

Navoiy “D.F.”da “Zi hi gulho zada chok az g‘ami ro‘yat girebonho” misra b-n boshlanuvchi 9 baytli g‘azalida N.ni “bodi Navro‘z” forsiy izofa shaklida qo‘llagan:

Chaman az maqdamat jon yofta, n-az bodi
Navruzist,
Taharruk dar shajarho, jilva dar gulho-yu
rayhonho!

Tarj.: Daraxtlarning tebranishi, gul va rayhonlarning jilvasi N. nasimidan emas, chaman sening qadamingdan jon topg‘anidadir.

N. tarovati shoirga ayricha ilhom bag‘ishlagan. N. munosabati b-n u bahor go‘zalligi, yor go‘zalligi, yurt tabiatining betakrorligini qalamga olgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик, 3-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Девони Фоний. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Муншаот. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ҳолоти Паҳлавон Муҳаммад. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Ражабова Б. Навоий ижодида Наврўз талқини. Амир Алишер Навоий ва тожик*

адабиёти. Халқаро илмий анжуман материаллари (Хўжанд, 15–16-апрель, 2016-йил).

B.R.

NAVRO‘ZIY KULOH – bosh kiyimi. Kuloh Musulmon Sharqida qadimgi davrlardan boshlab iste’molda bo‘lgan. U shakliga ko‘ra ikki turli bo‘lib, ulardan biri uzunchoq, cho‘qqisimon kuloh edi. Kulohning bu turi kigizdan tikilgan va uni, asosan, darveshlar kiygan. Ikkinchi turi do‘ppiga o‘xshash, lekin to‘rtburchak do‘ppilar shaklida emas, dumaloq shaklda bo‘lgan. Kulohning har ikki turi ham ustidan salla o‘rashga mo‘ljallangan bosh kiyimlari edi. Dumaloq, do‘ppisimon kulohning qimmatbaho bezakli oltin b-n tikilgan gullar solingan turi N.K. deyilgan. N.K.ning o‘ziga xos jihati uning bosh kiyimi bo‘lishi b-n bir qatorda rasmiy marosimlarning atributlaridan biri bo‘lganidir, ya’ni o‘sha davrlardagi mavjud qoidaga ko‘ra, biron kishiga yuksak unvon, rutba berilganda shu munosabat b-n marosim uyushtirilgan va o‘sha kishiga faxrli libos b-n birga N.K. kiydirilgan.

1472-y.da N.ga amirlik rutbasi berilganda ham, bu udum bajo keltirilgan va qimmatbaho to‘n b-n birga N.K. berilgan. Bu to‘g‘ridagi ma’lumotlar manbalar orqali yetib kelgan. Jumladan, “Ravzat us-safo”da shunday deyiladi: “Hijriy 876-yil sha’bon oyida bandanavoz podshoh ul vojib ul-atob amirni amorat mansabi b-n sarafraz qilmoqchi bo‘ldi... Shundan keyin amir Alisher mamlakat ochuvchi xoqon ra’yini rioyat qilib, amorat mansabini qabul qildi, tillado‘z chopon va navro‘ziy kuloh kiyish b-n faxr topdi”. Bu ma’lumotni “Habib us-siyar” muallifi ham tasdiqlaydi: “Shundan keyin sulton hazratlarining yaqin do‘sti xoqonning munosib xohishiga binoan devoni oliy amirligi mansabini egalladi va tillabof jubba hamda kulohi navro‘ziy b-n sarafroz etildi”.

Ad.: *Раҳматуллаева Д., Ходжаева У., Атаханова Ф. Либос тарихи. – Т., 2015; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985.*

Q.E.

NAVFAL QIZI – “L.M.” dostonidagi epizodik qahramonlardan biri. Arabning qudratli va nufuzli harbiy sarkardasi, yaxshilik b-n nom chiqargan sahro lochini Navfalning yakka-yu yagona qizi. O‘zi ham “ishq ko‘rgan”, bir mahallar “g‘am dashti aro yugurgan” bu mard va tanti, oliyjanob va himmatli inson chorasiz Majnunni sevganiga yetkazish u-n qilgan sovchiligi ham, zo‘rlik b-n Laylining otasiga qarshi ochgan urushi ham biror naf keltirmagach, qizini berib, uni o‘ziga kuyov qilmoqchi bo‘ladi. Sahroda ilk bor uchrashib, tanishganlaridayoq xayrixohlik b-n unga homiylikni o‘z zimmasiga oladi: yo “tuhfayu mol”, yo “zarbi rost” b-n seni mahbubangga qovushtiraman, mabodo bu har ikkala urinishim ham biror natija keltirmaydigan bo‘lsa, “farzand qilay seni o‘zumg‘a” deb va’da berib yuboradi.

N.Q. haqidagi ta’rifni dostonda ilk bor Laylining Majnunga yozgan maktubida uchratamiz. Eshitishimcha, N.Q.ning qo‘lini so‘rabsan, mening seni baxtli ko‘rishdan bo‘lak muddaoyim yo‘q, bu xayrli ishing muborak bo‘lsin deb, qiz haqidagi fikrini shunday ifodalaydi:

Bog‘ ichra qo‘yub qadamni bir kun,
Ko‘rmish edim ul sanamni bir kun.

Ham xo‘b-u ham elga mehribondur,
Necha desa yaxshigina jondur.

Keyin esa otasi uni Majnunga maqtaydi:

Bir yotlig‘i bor emish parivash,
Boshtin-ayog‘i latif-u dilkash.

Iffat haramida ul jamila,
Savdosida zor yuz qabila.

Vaslin tilar elga xud adad yo‘q,
Ayturg‘a anga valek had yo‘q.

Lekin N.Q.ning sevgan yigiti bo‘lib, iffat-ibo tufayli otasidan, gap-so‘zga nishon bo‘lmaslik u-n eldan pinhon tutib kelganlarini ota-ona rizosi u-n o‘zi xohlamagan nikohga rozi bo‘lgan Majnun to‘y kechasi u b-n yolg‘iz qolganida eshitadi.

U avval Majnunning ishq ichra zamon yagonasi ekanligi, sevgisiga sodiqligini ta’riflab, Layli b-n topishishi u-n duo qiladi, keyin o‘zining muhabbatidan so‘z ochib, qiz bola bo‘lgani u-n uni badnom qilmay, barcha aybni o‘z bo‘yniga olib, go‘shangani tark etishini o‘tinib so‘raydi. Bu voqeadan Majnun o‘zining xursandligini yashirmaydi: mening o‘zim ham bu mushkul ahvoldan qanday qilib chiqib ketishni bilmay turgan edim, yaxshiyamki, o‘zing madad qilding, deydi va ikki yoshga baxt tilab yana biyobon sari yo‘l oladi. Qo‘lida xanjar b-n chodir ortida voqea rivojini kutib turgan va kelin-kuyov birga bo‘lgudek bo‘lsa, ularni ham, o‘zini ham o‘ldirishga shay bo‘lgan N.Q.ning oshig‘i Majnunning bu mardligi va tantiligiga qoyil qoladi. Chodirning boshqa tomonida turib hamma gapni eshitgan Navfal ham hammasiga rozi bo‘ladi va taqdir ishiga chora yo‘q ekan deb, Majnunning yaqinlarini yupatadi.

Majnun ketgach, chodirga yigit kirib keladi. Sevishganlar tuni b-n bir-birlariga mehr b-n boqib, masti diydor bo‘lsalar-da:

Juz nafs murodikim yo‘q erdi,
O‘zga bori kom dast berdi.
Tong otgucha gung-u lol edilar,
Sarmasti mayi visol edilar, –

deb yozadi N. sababi, ikki yosh ishq ta’limini Layli b-n Majnundan olgan edilar.

Ma’lumki, N. “M.Q.” pandnomasida ishqni avom ishqi, xoslar ishqi va siddiqlar ishqi deb 3 qismga bo‘lgan edi. N.Q. va yigitining ishqi ayni tasnif bo‘yicha shar’iy nikoh b-n yakun topadigan avom ishqi bo‘lib, dostonda u majoziy va haqiqiy kabi 2 bosqichdan iborat ishqning birinchi bosqichi sifatida keltiriladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011.*

E.O.

NAGISOYI CHANGIY (t.y. va v.n.) – Nokiso tarzida ham uchraydi, bastakor va sozanda. VI–VII asrlarda sosoniylardan Xusrav Parvez saroyidagi san’atkorlardan. Chang chalishda favqulodda iste’dodi bo‘lgani sababli “Changiy” laqabini olgan. “Zangona” (yoki “Zangiyona”) nomli tasnifi mashhur bo‘lib, go‘zal ohangli marosim kuyi sanaladi. Xalq og‘zaki ijodida N.Ch. nomi b-n naqllar saqlanib qolgan. Shulardan birida mashhur bastakor va xonanda Borbad (q.) ning Xusrav Parvez (q.) qatlidan so‘nggi hayoti va unga N.Ch.ning sadoqati hamda mehribonligi hikoya qilinadi.

Nizomiy va Xusrav Dehlaviyning “Xusrav va Shirin”, “Shirin va Xusrav” dostonlarida N.Ch. mashhur xonanda, sozanda va bastakor Borbadning shogirdi va mohir san’atkor sifatida tilga olinadi.

N. “F.Sh.”da Xusrav Parvez saroyidagi hayotni ta’riflar ekan, N.Ch.ni tilga oladi:

Nagisoyi zamong‘a chun berib soz,
Zamona ahlin aylab ayshpardoz.

Keyinchalik, N.Ch. va Borbad nomlari, umuman, mohir sozanda va xonanda san’atkorlarni ta’riflash, madh etishda ko‘chma ma’no kasb etib kelgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011.*

S.G‘.

NADIMIY BOLTANIYOZ – Boltaniyoz devon Qurbonniyoz xarrot o‘g‘li Nadimiy (vafoti, 1938) – xivalik mohir xattot va shoir. N.B. Xivaning Shayxlar qishlog‘ida tavallud topgan. Ko‘proq Ichon-qal’adagi Mamat mahram madrasasi hujrasida istiqomat qilgan. N.B. mashhur xattot va musiqashunos xonanda Muhammad Yoqub xarrot (1867–1939)ning ukasi bo‘lib, xattotlik sirlarini undan o‘rgangan. N.B.ning xushnavisligini ko‘rgan Feruz uni devonga ishga oladi, u turli badiiy va tarixiy asarlar va devonlarni go‘zal nasta’liq xati b-n ko‘chirgan. Uning kitobatiga mansub o‘ndan ortiq qo‘lyozmalar O‘zR FAShI Sharq qo‘lyozmalari markazida saqlana-

di. N.B. she'riyatda Bayoniyning (1840–1923) shogirdi bo‘lib, “Nadimiy” va ba'zida “Nodim” taxallusi b-n turli uslubda she'rlar ham yozgan (ShQM-1, №№ 901, 902, 906). G‘azallari Ahmad Tabibiy (1869–1911) tuzgan “Majmuat ash-shuaro” tazkirasiga kiritilgan. N.B. Xivaning bosh vaziri Islom Xo‘janing kotibi bo‘lgan, 1920–24-yy.da Xorazm Xalq Sho‘rolar respublikasida qishloq xo‘jalik vazirligida ishlagan, keyinchalik dehqonchilik qilgan. N. va boshqa shoirlar muxammaslarini ko‘chirib, alohida kitob shaklida keltirgan. Qo‘lyozma Movarounnahr nasta'liq xati, fabrika qog‘ozi, har varaqi zarhal hoshiya b-n bezatilgan. 1905-y.da Xivada ko‘chirilgan. ShQM. inv 1132. 147 v.

Ad.: *Бобожон Тарроҳ. Хоразм навозандалари. Нашрга тайёрловчи Давлатёр Раҳим. – Т., 1994; Лаффасий. Тазкираи шуаро. Нашрга тайёрловчи П.Бобожонов. – Урганч, 1992; Муродов А. Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан. – Т., 1971; Эркинов А., Полвонов Н., Аминов Ҳ. Муҳаммад Раҳимхон II – Феруз кутубхонаси феҳристи. – Т., 2010; Ҳожи Исматуллоҳ Абдуллоҳ. Марказий Осиёда Ислом маданияти. – Т., 2005; ЎзМЭ. 6-жилд. – Т., 2003.*

Muh.A.

NAJAF – Iroqdagi shahar. Bag‘doddan 160 km masofada, janub tomonda joylashgan. Rufa shahriga nisbatan g‘arbda, 10 km uzoqlikda. Bu yerda Ali ibn Abu Tolib dafn etilgan. Xalifa Horun ar-Rashid 791-y.da hazrat Ali qabri ustiga sag‘ana qildirgan. Shu sababli bo‘lsa kerak, ayrim adabiyotlarda N. Horun ar-Rashid tomonidan barpo etilgan, degan ma'lumotlar uchraydi. Aslida esa bu juda qadimiy shahar bo‘lib, islomdan oldin ham mavjud edi.

X asr oxirida hazrat Ali mozorida muhtasham maqbara qurilgan. Manbalarda bu maqbarani ko‘rgan kishilarning ma'lumotlari saqlanib qolgan. Ularda aytilishicha, maqbaraning eshiklari ichidagi chirog‘donlar ham oltindan bo‘lib, maqbara hashamatli darpardalar b-n bezalgan va qimmatbaho gilamlar to‘shalgan ekan.

N. Navoiyning “T.A.H.” asarida tilga olingan. Ma'lumki, diniy manbalarda Najafda faqat hazrat Ali emas, Nuhas, Odam (a.s.) ham dafn qilingan degan fikrlar uchraydi. N. bu xususda ikki xil ma'lumot borligini aytib o‘tgan: “Va Nuh (a.s.) Odam (a.s.) so‘ngakin… Madyan yerida, ba'zi derlar Najafda dafn qildi”.

Ad.: *Alisher Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo. TAT. 10 jildlik, 8-jild. – T., 2011.*

Q.E.

NAJIB AMIR (1899–1991, – Urjar, Qozog‘iston) – sharqshunos-turkolog, f.f.d-ri, uyg‘urshunoslik, o‘g‘uz va qorluq guruhlari bo‘yicha yetuk mutaxassis, uyg‘urcha-ruscha fundamental lug‘at asoschilaridan biri. N.A.ning “Zamonaviy uyg‘ur tili” (M., 1960.), “XIV asr Misr mamluklari davrida qipchoq-o‘g‘uz adabiy tili” (M., 1965.), “XIV asrning turkiy tildagi yodgorligi – Sayfi Saroyining “Guliston”i va uning tili” singari ilmiy tadqiqotlari mavjud. U o‘zining “Turkiy tillar tarixiga oid tadqiqotlar XI-XIV asrlar” kitobida Mahmud Koshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Sayfi Saroyi, Qutb kabi ijodkorlarning asarlari borasida salmoqli kuzatishlar olib borgan, “Nahjul farodis”, “Siroj ul-qulub” asarlari ustida olib borgan izlanishlarida o‘z mulohazalarini dalillash u-n N. asarlariga tez-tez murojaat etgan. Xususan, “Uyg‘urcha-ruscha lug‘at”, “Zamonaviy uyg‘ur tili” kitoblarini yaratishda olim N. qo‘llagan so‘zlarga ham ko‘p marta tayangan.

Umuman olganda, N.A. tadqiqotlari klassik o‘zbek adabiyoti, jumladan, N. ijodini o‘rganishda maktab vazifasini bajaruvchi manbalardan biridir.

Ad.: *Благова Г. Ф., Кормушин И.В., Поцелуевский Е. А., Тенишев Э.Р. Эмир Наджипович Наджип (к 90 летию со дня рождения) // Советская тюркология. – 1989. – № 2.*

S.O‘.

NAJMIDDIN KUBRO – Tasavvuf tarixida kubraviya (yoki zahabiya – oltin tariqat) deb nom olgan kubraviylik tariqatining asoschisi – Ahmad ibn Umar ibn Muhammad Xivaqiy al-Xorazmiy (mil. 1145–1221-yy.) Laqablari: “Najmiddin” (Dinning yulduzi), “Kubro” (Ulug‘), “Abuljannob” (“Dunyodan chetlanuvchi, parhez etuvchi”), “Valiytarosh” (“Valiylarni tarbiyalovchi”)dir. N. yozadi: “Kuniyatlari Abuljannobdur va otlari Ahmad bin Umar Xevaqiy va laqablari Kubrodur”. N.ning yozishicha, N.K.ga Kubro laqabi berilishining sababi, yigitlik davrida zohiriy ilmlarni chuqur egallab yurgan paytlarida kim b-n “munozara va mubohasa qilsalar ermish – ul kishiga g‘olib bo‘lurlar ermish”. Abuljannobning ma’nosi – “Ijtinob qiluvchilarning otasi” deganidir. Ijtinob – saqlanish, parhez qilishdir. Bu kunya borasida N. yozadi: “Bunday naql qiladilar: Shayx N.K. Hamadonga borib, hadis ijozati hosil qildi (hadisdan saboq berish ijozatini oldi). Keyin eshitdiki, Iskandariyada bir muhaddis bor ekan, oliy sanadi (oliy hujjati) bormish. U yerga ham borib ijozat hosil qiladi. Qaytib kelayotganida, hazrat Risolat (s.a.v.)ni tushida ko‘radi va ulardan biror bir kunyat bag‘ishlashini iltimos qiladi. Hazrat ularga Abuljannob kuniyatini inoyat qiladilar. Shunda ular (tushida) so‘raydi: Abuljannobmi? Payg‘ambar buyurdilarki, Yo‘q, Abuljannob! Uyg‘ongach bildilarki, bu kuniyatdan maqsad – dunyodan ijtinob qilmoq, ya’ni dunyo ilmlaridan biroz uzoqlashib, endi botiniy, orifona bilimlarga yuzlanmoqni tushundi. Darhol tajrid – yolg‘izlik to‘nini kiydi va piri murshid talabida musofir bo‘ldi”. N.ning “N.M.” asarida N.K.ning silsila shayxlaridan Shayx Ro‘zbehon Misriy, Shayx Ammor Yosir va Shayx Ismoil Qasriylarni tilga oladi. “N.M.”da keltirilganidek, kubraviylikning asosiy ildizi Shayx Ziyovuddin Abunnajib Abdulqohir Suhravardiy (q.s.) vositasida N.K.ga yetishgan. N.K. vositasida kubraviya shayxlarining silsilasi sayyid ut-toifa nomi b-n mashhur bo‘lgan Shayx Junayd Bag‘dodiyga borib taqaladi. N.K. Tabrizda Bobo Faraj degan so‘fiy b-n uchrashib, uning ta’limi va nasihatlarini olib, qo‘lidan xirqa kiyadi. N.K. inson ruhining imkoniyatlarini anglagan ruhshunos orifdir. O‘z ruhining sirli va g‘ayb olamlaridan voqif bo‘lgani, g‘aybat holidagi sir va asrorlarni bayon qilgani tarjimayi holidan ma’lum. U inson ruhi taraqqiy etib borsa, cheksiz imkoniyatlarni qo‘lga kiritishidan mujda beradi. Taraqqiy etgan solikning ruhi esa “olami sug‘ro”, kichik olam o‘laroq “olami kubro”, katta olamning barcha xususiyatlarini o‘zida mujassam etadi. N.K. ruhoniy kechinmalar, nozik holatlarni puxta bilganidan shunga muvofiq, “latoyif”larni ochish, ularni taraqqiy ettirish qoidalarini ishlab chiqadi. Bu qoidalarga binoan, inson ruhi ko‘zga ko‘rinmas bir latif markazlardan iborat. Bu ong va tuyg‘u, ruh va jism orasidagi bir narsa. So‘fiy aynan shu markazlarni zikr va nur b-n sayqallab, fayzga to‘ldirib borishi zarur. Kubraviyada haqiqatga bo‘lgan intilishning chek-chegarasi yo‘q. Ammo solik bir murshidi komil vositasida ma’lum bir an’analar va odoblar doirasida harakat qilmog‘i zarur. Ilohiy sifatlar birin-ketin o‘ziga xos ma’naviy maqomlarda joylashganidan, haqiqat yo‘lini qidiruvchilar bunday kamolotga erishish u-n ma’lum riyozatli yo‘llarni o‘tishlari zarur. N.K. yoshligidanoq hadis va kalomni o‘rganadi, ilm istab Misrga boradi. U yerda Shayx Ro‘zbehoni Kabir Misriy (r.t.)dan ta’lim oladi va uning qiziga uylanadi. N. bu haqda yozadi: “Va Shayx Najmuddin Kubro aning suhbatig‘a yetibdur va anda riyozatqa mashg‘ul bo‘lubdur va xilvat o‘lturubdur. Va Shayx Ro‘zbehoni Kabir alarni kuyavliqqa qabul qilib, alarg‘a Shayxning qizidin ikki

o‘g‘ul bo‘lubdur. Keyinchalik Tabriz, Hamadon, Dizfulga kelib ilohiyotdan saboq oladi. Misrga qaytgach, ustozi Ro‘zbehon uni kamolotga yetishgan hisoblab, o‘z yurtiga qaytishni maslahat beradi.

N.K. Xorazmga kelgach, xonaqoh quradi va o‘z sulukini yurgiza boshlaydi. Bu paytda u 35 yoshlarda bo‘lgan. N.K. ustozlarining tavsiyalari va o‘zining ilmiy, hayotiy va ruhiy tajribalaridan kelib chiqib, kamolotga erishish yo‘llarini, asoslarini ishlab chiqadi va ularni arab tilida yozgan bir necha risolalarida bayon etadi. Ulardan asosiylari: “Favoih al-jamol va favotih al-jalol”, (“Jamol xushbo‘yliklari va jalolning kashfi”), “Usul ul-ashara” (“O‘n usul”), “Risolat al-xoif al-hoim min lavmat al-loim” (“Malomatchining malomatidan qo‘rquvchi oshiq haqida risola”) va boshqalar. Bu asarlar yurtimizda va xorijiy davlatlarda chop etilgan. N.K. Qur’onga tasavvuf nuqtayi nazaridan sharh berishni oxirigacha yetkaza olmadi, bu ishni shogirdlari tugalladilar. Tasavvuf ta’limotining rivoji va keng tarqalishida katta omil bo‘lgan. N. N.K.ning valitarosh (“valilar yetishtiruvchi”) sifatiga ega bo‘lganligini “N.M.” asarida keltirib o‘tadi. U aynan kuchli “vajd-u hol”da bo‘lib turganida bir savdogarga nazari tushadi va oniy lahzada uni valiylik darajasiga yetishtiradi. Shuningdek, N. N.K. nazarining itga ta’sir qilgan namunasini “L.T.” dostonida “Shayx Najmiddini Kubroning so‘zi va itga tushgan ko‘zi” sarlavhasi ostida bayon qilib beradi. Hikoyada aytilishicha, N. K.ning ishi (darajasi) shu joyga yetgan ediki, kimga nazar solsa, o‘zligidan ayrilib, vali bo‘lib ketardi, – deydi. Bir kun sukr (Alloh ishqiga mastlarcha g‘arq bo‘lish) holatida itga nazar soladi. Nazardan bahramand bo‘lgan it itlik siyratidan chiqib, odam kabi Haqqa oshnolig‘ izhor etadi. It barcha itlarning boshlig‘i sifatida qayerga borsa itlar to‘dasi ketidan qolmas, o‘tirsa yonida davra qurib o‘tirishardi. Bir kun ajali yetib o‘lgandan keyin itni shayxning eshigi oldida dafn qilishib, odam kabi hurmat b-n ko‘mishadi hatto qabrini ko‘zga tashlanadigan qilib yasashadi. Vafotidan keyin ham itlar, qabrining atrofida parvona bo‘ladilar. Hatto ba’zi asror egalari itning qabrida hurmat va izzat ko‘rsatishardi. Bu qabr N. davrida ham bor bo‘lganligini shoir qayd etadi:

“Bu dam ul Xorazmda mavjud erur.
Kishvarekim hokimi behbud erur”.

N. N.K. nomini “S.Z.”ning ikkinchi qasidasi “Ayn ul-hayot”da ham eslab o‘tadi. Hazrat Payg‘ambarni ta’rif-tavsif qilgan shoir uning ummatlari ichida ulug‘ avliyolar borligini N.K. siymosida ta’kidlab o‘tadi. Shoirning aynan N.K. ni misol qilib keltirishi ham unga bo‘lgan ehtiromining bir namunasidir.

Hast mashhur in, ki Najmiddinvashoni ummatat,
Jazba baxshand az yaqin bar sag nazar
to afganand.

Tarj.: Shu ma’lumki, ummatingni Najmiddin (Kubro) sifat avliyolari agar itga nazar qilsalar, shubhasiz, unga jazba bag‘ishlaydilar.

N. “N.M.”da N.K.ning shahid bo‘lish voqeasini bayon qilgan. Uning yozishicha, totor kuffori (mo‘g‘ul bosqinchilari) Xorazmga yetib keladi. Ular N.K. murid va muxlislarini yig‘ib o‘z viloyatini tark etishni talab qilishadi. Ular ketishadi. As’hoblaridan ba’zilari “siz ham chiqib keting”, deb iltimos qilishadi. U kishi “biz bu kuffor ilkida shahid bo‘lurbiz”, deydilar va qolgan yaqinlari b-n jangga chiqib, shahid bo‘ladilar. Aytishlaricha, shahid bo‘lish asnosida bir kofirning bayrog‘iga chang solgan ekan. Shahid bo‘lganidan keyin u bayroqni qo‘lidan o‘n kishi ayirib ololmagach, bayroqni kesib ajratib olishgan. Va ba’zilarning aytishicha, Hazrat Mavlono Jaloliddin Rumiy quyidagi she’ri orqali N.K. qissasiga hamda o‘zining unga bog‘liqligiga ishora qilgan: Ruboiy:

Mo az on muhtashamonim ki, sog‘ar girand,
Na az on muflisakon, ki buzi log‘ar girand,
Ba yaki dast, mayi xolisi iymon no‘shand,
Ba yake dasti digar, parchami kofir girand.

Tarj.: Biz qo‘lga qadah oluvchi ulug‘vor kishilarmiz. Oriq echkisi b-n qolgan qashshoqlardan emasmiz. Bir qo‘lda iymonning xolis sharobin icharlar, bir qo‘lda kofirning kokilin mahkam tutarlar. N. K. mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi jangda 1221-y. shahid bo‘lgan. Uning qabri Ko‘hna Urganchda (hozirgi Turkmaniston hududida).

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Бертельс Е.Э. Четверостишия шейха Наджм ад-дина Кубра // Суфизм и суфийская литература. – М., 1965; Шайх Нажмиддин Кубро. Тасаввуфий ҳаёт. – Т., 2004; Ислом. Энциклопедия. – Т., 2004; Нажмиддин Комилов. Нажмиддин Кубро. (Рисола). – Т., 1995; Шарҳи рисолайи одобул зокирин. – Урганч, 1997; Исоқова З. Нажмиддин Кубро. – Т., 2011; Шайх Нажмиддин Кубро (Мақолалар). – Т., 1995.*

S.R.

NAZAR MIRZO MUHAMMAD – Qo‘qon xattotlik maktabining namoyandalaridan. Olim va fozil kishi bo‘lgan. Yetti xat turida, nasx va nasta’liqni jaliy va xafiy usulda yoza olgan, qilqalam sohibidir, N. asarlaridan ikkita qo‘lyozma to‘plamini ko‘chirgan. 1. “X.M.”. “X.”, “M.Q.”. Toshkent. O‘zR FAShI. Inv. № 526-II, III, IV. 712 varaq. 1241/1825–26-yy.da ko‘chirilgan. 2. “M.Q.”. “X.”. Toshkent: O‘zR FAShI. Inv. № 9744. 280 varaq. 1242/1826–27-yy.da ko‘chirilgan. Har ikkala qo‘lyozma to‘plam Qo‘qon shahrida Muhammad Rahim Devonbegining farmoyishi b-n kitobat qilingan.

Ad.: *Ҳакимов М., Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. – Т., 1991; Собрание восточных рукописей академии наук Узбекистан. VII. – Т., 1964.*

Muh.A.

NASAF – (q.) Qarshi. Hozirgi Qashqadaryo viloyati markazi bo‘lgan Qarshi shahrining qadimiy nomi. Bugungi Qarshi va uning atrofidagi hududlar 2700 yildan sal ko‘proq ko‘hna tarixga ega bo‘lib, turli yillarda ayricha nomlar b-n atalib kelingan. N.ning tarixi va shu o‘lkadan yetishib chiqqan allomalarning hayoti va ijodi haqida juda ko‘p manbalarda ma’lumotlar saqlanib qolgan. Shulardan biri ko‘p qirrali olim Abdulkarim as-Sam’oniyning (1113–1167) “Al-Ansob” (nasablar) nomli kitobida keladiki: “Nasaf – Movarounnahr shaharlaridan. Avvalgi nomi – Naxshab. Bu shaharda qariyb ikki oy turdim va u yerning ko‘p olimlaridan ta’lim oldim. Bu shahardan o‘z fanining ko‘p mutaxassislari yetishib chiqqanlar. Ularning sanog‘iga yetish qiyin”.

N. “N.M.” asarida yozishicha, Abduxoliq G‘ijduvoniy ruhoniyati Bahouddin Naqshbandga bir qator nasihatlar, vasiyatlar qilgandan keyin N.ga Amir Sayyid Kulol xizmatiga borishni buyuradi. Bahouddin Naqshband aytadiki: “Nasafg‘a bordim va Mir xizmatig‘a yettim”.

N. mazkur asarida Xoja Muhammad Porso haqida ham yozar ekan uning 822 (mil. 1419) yili, muharram oyida “Bayt ul-harom va Nabiy ziyorati alayhis-salavot vas-salom niyati” b-n Buxorodin chiqib, “Nasaf yo‘li bila Chag‘oniyon va Tirmiz va Balx va Hirot”ning tabarruk mozorotlarini ziyorat qilish u-n yo‘lga chiqqanligini aytib o‘tadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Насабнома (ал-Ансоб), (арабчадан А.Раззоқов ва Р.Комиловлар таржимаси). – Бухоро, 2003.*

S.R.

NASAFIY MIRZO ABDUQODIR (XIX asr)– M.A. Amir Nasrullo zamonida yashagan, Buxoro xattotlik maktabi vakili. Shikasta nasx va nasta’liq xatida yozgan. N.ning “X.”, “L.T.” va “M.Q.” asarlarini bir jild qo‘lyozma holida Buxoro shahrida 1266/1849–51-yy.da nasta’liq xa-

tida kitobat qilgan. Toshkent, O‘zR FAShI. Inv. № 9287. 244-varaq. Qo‘lyozma badiiy lavha b-n bezatilgan.

Ad.: *Муҳаммад Шариф Садри Зиё. Тазкират ал-хаттотин. ШҚМ-1, № 1304; Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. – Т., 1991.*

Muh.A.

NAZM (ar.) – 1. Bir-biriga chirmashgan marvarid shodasi, durni ipga tizish. 2. Pardoz qilish, sayqal berish. 3. Tartib, qoida, intizom. 4. Adabiyotshunoslikda: badiiy nutq shakllaridan biri, tizma, she’riy nutq. Sharq adabiyoti va adabiyotshunosligida, shu jumladan, Navoiy asarlarida nazm ko‘proq she’riyat (poeziya) tushunchasini bildiradi. She’r shakli, mazmuni qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, qofiya b-n yozilganiga ko‘ra – hammasi nazm hisoblanadi. Navoiy devonlarida Navoiyning g‘azal, mustazod, muxammas, musaddas, musamman, tarji’band, masnaviy, qasida, soqiynoma, qit’a, ruboiy, muammo, chiston, tuyuq, fard deb nomlangan 16 turi mavjud. Navoiy N.ni nasr (proza)ga qiyoslab, o‘rta asr adabiyotshunoslari singari N.ni nasrdan yuqori qo‘ygan. Uningcha, she’riy asarlarda chiroyli, ta’sirli iboralar, badiiy san’atlar ko‘proq va N.ni bularsiz tasavvur etishning o‘zi qiyin. Navoiy bu haqda “S.S.” dostonining kirish qismida quyidagilarni yozadi:

Har kishi qilmoq istasa ma’lum,
Biri mansur erur, biri manzum.

Nasr-u nazmi angaki mudrakdur,
Nazmining poyasi biyikrakdur.

Negakim, yaxshi so‘zki zohir erur,
Lafz ti’dodidin javohir erur.

Xud javohir nechaki dilkashroq,
Nazm silkiga cheksalar xushroq.

XV asrning ikkinchi yarmida Xuroson va Movarounnahr adabiy muhitida she’r yozish avj olgan bo‘lsa ham, yozilgan asarlarning g‘oyaviy-badiiy salmog‘i ulug‘ shoir talabidan uzoq edi. N. “H.A.” dostonida N.ning qanday bo‘lishi kerakligi masalasiga to‘xtalarkan, she’riy asarning ,avvalo, ma’noli, qolaversa, nozik didli she’riyat muxlislari didiga mos bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi:

Nazmda ham asl anga ma’ni durur,
Bo‘lsun aning surati har ne durur.

Nazmki, ma’ni anga marg‘ub emas,
Ahli maoniy qoshida xo‘b emas.

“M.N.”, “X.” va boshqa asarlarida ma’nosiz, badiiy jihatdan sust she’r yozib, nazmning obro‘sini to‘kkan o‘ziga zamondosh shoirlarni qattiq tanqid qiladi. Navoiy “F.Sh.” dostonida o‘ziga xitob qilib:

Ani nazm etki, tarhing toza bo‘lg‘ay,
Ulusqa mayl-u beandoza bo‘lg‘ay... –

deb yozar ekan, bir umr “tarhitoza” she’rlar yozishga harakat qildi. “L.T.” dostonida:

Nazm-u nasrim kotibi taxminshunos –
Yozsa, yuz ming bayt etar erdi qiyos... –

deyishidan, o‘zining katta she’riy meros yarata olganini uqtiradi. Navoiy jamiyatda N.ning ijtimoiy-siyosiy, tarbiyaviy va tug‘yoniy vazifasi nihoyatda yuqori deb tushunar, boshqalardan ham shuni talab qilardi. “M.A.” risolasining oxirida ulug‘ shoir to hayot bo‘lar ekan, odamlar she’r yozish va o‘qishni tark etmas ekan, o‘z she’riyatining butun yer yuzida tartib va intizom o‘rnatishga xizmat qilishi kerakligini uqtiradi. U o‘ziga murojaat qilib deydi:

To charx davoyiridin o‘lg‘ay ayyom,
To she’r xayolotig‘a yo‘qtur anjom.
To bayt tarokibida bo‘lg‘ay ibhom,
Topsun nazming bila jahon ahli nizom.

“S.S.” dostonining N. va nasr qiyoslangan 6-bobida Navoiy adabiyotda N. va nasrdan iborat 2 uslub mavjudligini ta’kidlab, N.ni nasrdan ustun qo‘yadi – N.ni ipga tizilgan, nasrni esa sochilgan javohirga o‘xshatadi:

Nazm-u nasr ichra ham bu nisbat bil,
Ikkisin bu ikiga nisbat qil.
Nazm aro elga xud maqolat bor,
Lek nazm ichra o‘zga holat bor.

Navoiy N.ni she’r, she’riyat, ba’zida, hatto umuman adabiyot ma’nosida qo‘llaydi. Shoir ijodida N. b-n birikib kelgan ko‘plab iboralar uchraydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Фарҳанги забони тожики. Жилд 1. – М., 1969; Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 2. – Душанбе, 1988; Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2010; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик, 2-жилд. – Т., 1983.*

Y.I., Ab.H., E.O.

“NAZM GULISTONINING XUSH NAG‘MA QUSHLARI ZIKRIDA” – “M.Q.” asarining shoirlarga bag‘ishlangan o‘n oltinchi fasli nomi. N. ushbu asarida maxsus boblarda faqihlar, mudarrislar va tabiblarga, so‘ng shoirlarning jamiyatda tutgan o‘rniga, mavqeyiga, undan keyin esa kotiblar, dabirlar (maktab muallimlari), mutrib va mug‘anniylar, qissasoz va qissaxonlarga maxsus to‘xtalar ekan, XV asrdagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotni shularsiz tasavvur eta olmaydi. N. “X.” dostonlarida, “M.L.”, “X.M.”, “M.A.”, “M.N.” kabi asarlarida adabiyot va adabiyotshunoslik masalalariga katta e’tibor bergani kabi “M.Q.”da ham shoirlarga maxsus bob ajratish b-n bu masalaning g‘oyat original talqinini berdi. N. bu o‘rinda, asosan, 2 masalaga – she’riyat (adabiyot) tarixiga hamda zamonaviy shoirlarning fe’l-u atvori, yozgan asarlarining g‘oyaviy-badiiy saviyasiga e’tibor qilgan. XV asrda she’riyat Sharq mamlakatlarida adabiyotning asosiy turi bo‘lib, N. she’riyat tarixi haqida mulohaza yuritganda adabiyot tarixini ko‘zda tutadi. U she’riyat tarixi haqida fikr yuritar ekan, shoirlarni turli tabaqalarga bo‘lib o‘rganish tarafdori (“Ul necha tabaqadur”). Bunda adabiyot tarixini yagona oqimdan iborat deb emas, balki turli oqimlardan, bir-biridan farq qiluvchi har xil guruhlar faoliyatidan iborat deb qarash tamoyili ko‘zga tashlanadi. XV asr adabiyotshunosligida bu katta yangilik edi. N. birinchi tabaqaga axloqiy-ta’limiy mazmunda she’rlar yozgan, to‘rtinchi xalifa – Alini, so‘ng fors-tojik adabiyotidagi irfoniy yo‘nalishning yirik vakillari Farididdin Attor, Jaloliddin Rumiy kabilarni kiritgan. Ularning she’riyatga xos xususiyat, “she’r yozishdan ularni kuzatgan “maqsadlari nazmdin asrori ilohiy adosi va ma’rifati nomutanohiy imlosidin o‘zga yo‘qtur”. Shu guruhga yaqin yana shunday “avliyoyi ogoh va mashoyix va ahlulloh borkim, bularga tatabbu’ qilubdurlar va bular kalomi adosin va haqoyiqi ma’nosin mustahsan bilibdurlar”, – deydi N. “Yana bir jamoatdurlarkim”, – deb yozadi N. ikkinchi guruh shoirlar haqida – “haqiqat asrorig‘a majoz tariqin maxlut qilibdur va kalomlarin bu uslubda marbut etibdurlar”. Bu guruhga N. fors-tojik adabiyotining Shayx Sa’diy, Amir Xusrav Dehlaviy, Shayx Zahiriddin Sanoiy, Shayx Avhadiddin, Xoja Hofiz Sheroziy kabi namoyondalarini kiritgan. Yana bir guruhga N. “majoz tariqi adosi” “nazmig‘a g‘olib” va “bu shevaga ko‘prak rog‘ib” shoirlardan Kamoli Isfahoniy, Xoqoniy Shervoniy, Xojuyi Kirmoniy, Mavlono Jamoliddin, Xoja Kamol, Avhadiddin Anvariy, Abdulvose’ Jabaliy, Salmon Sovajiy, Nosiri Buxoriy, Kotibiy Nishopuriy, Shohiy Sabzavoriylarni kiritgan. Bu shoirlar ijodida dunyoviylik ko‘p vaqt qasidanavislik shaklida ifodalangan. N.ning yozishicha, Abdurahmon Jomiy ijodida oldingi ikki guruh ijodiga xos barcha yaxshi xususiyatlar o‘z aksini topgan. N. ta’rificha, Jomiy “haqiqat va majoz tariqida komil va ilmi ikkalasi tariqida vofiy va shomil”,

o‘z davri “nazm ahlining muqtado”si bo‘lib, “avvalgi tabaqa ravishi va kalomida ham sharif maqol va so‘nggi tabaqaning ham adosi latoyifida sohib kamoldurkim, olamda zavqu hol ahli bular latoyifi b-n masrurdurlar va bular maorifi b-n huzur qilurlar”. N. o‘z davridagi adabiyotga baho berishda, zukkolik va qat’iyat ko‘rsatgan. Ulug‘ shoir bu davr shoirlaridan “adno tabaqasi jamoati” ya’ni eng past darajadagi shoirlarni keskin tanqid qiladi: “... yuz mashaqqat bila bir baytkim, bog‘lashturg‘aylar, da’vo ovozasin yetti falakdin oshurg‘aylar. So‘zlarida ne haqoyiq va maorif no‘shidin halovat va nazmlarida ne shavq va ishq o‘tidin harorat. Ne shoirona tarkiblari ahsan va ne oshiqona so‘z-u dardlari shu’la afkan. Ba’zidin agar gohe birar yaxshi bayt voqe’ bo‘lur, ammo o‘n oncha yamon da’vo zohir bulurki, u ham zoe’ bo‘lur... Turfaroq bukim, har birining so‘zida ma’no ozroq va o‘zida da’vo ko‘proq...”.

N. “M.Q.” asaridagi she’riyatga doir bu fasl b-n adabiyotshunoslik taraqqiyotiga muhim hissa qo‘shgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

Ab.H.



“NAZM UL-JAVOHIR” (“She’riy durdonalar”) – N. ning Hazrat Ali (r.a.) hikmatlari asosida tartib berilgan “Nasr ul-laoliy” (“Nasriy injular”) to‘plamidagi hikmatlarning she’riy tarjimasi asosida yaratgan ruboiylar majmuasi.

Hazrat Ali (r.a.) ning hikmatli so‘zlari dastlab arab tilida “Kalomi amir al-mo‘minin Ali” nomi b-n jamlangan. Keyin Amr ibn Bahr al-Johiz (vaf. 868-70) ularni saralab, “Muxtasar hikmatlar” majmuasini tuzgan. Sharif ar-Roziy esa (10-asr) Hazrat Ali (r.a.) hikmatlarini “Nahj ul-balog‘a” (“Balog‘at yo‘li”) nomi b-n yaxlit holga keltiradi – undan 498 ta hikmat o‘rin olgan. Rashididdin Vatvot Al-Johiz to‘plamini “Nasr ul-laoliy” yoki “Sad kalima” (“Yuz kalima”) nomi b-n fors tiliga tarjima qiladi – unda hikmatlarning asliyati, forsiy tarjimasi va nazmiy talqini keltirilgan. “Nasr ul-laoliy” asosida ko‘plab asarlar yaratilgan. Ular orasida “N.J.” o‘ziga xos tuzilishi, mazmun-mundarijasining keng va rang-barangligi, badiiy mukammalligi b-n ajralib turadi. N. Al-Johiz to‘plamidan 268 ta hikmatni tanlab olib, ruboiy shaklida she’rga soladi. Albatta, u Vatvot majmuasidan ham ta’sirlangan. Forsiyda she’rga solingan bu hikmatlarni men ham turkiy tilda nazm rishtasiga tizib, turkiy xalqlarni bahramand etsam degan orzum bor, deydi uning o‘zi asar muqaddimasida.

“N.J.”ning yaratilishiga 3 sabab ko‘rsatiladi: birinchisi – Hazrat Ali (r.a.)ning durdona hikmatlarini she’rga solish an’anasini davom ettirish havasi, ikkinchisi – Husayn Boyqaroning o‘zi haqidagi “Risola”siga javoban munosib tuhfa hozirlash niyati, uchinchisi – Balxda Hazrat Ali (r.a.) qabrining qayta topilishi (1481/82) va uni borib tahqiq qilish munosabati b-n Hazrat Ali (r.a.) shaxsiga azaldan hurmati va ixlosi baland bo‘lgan N.ning uning hikmatlariga qiziqishining ortishi. Bu sabablarning biri unda niyat tug‘dirgan, ikkinchisi ilhom bergan, uchinchisi turtki bo‘lgan. “T.M.A.” asari oxiriga ilova qilgan masnaviyda ham “N.J.” Husayn Boyqaroga bag‘ishlangani haqida shunday yoziladi:

Chu “Nazm ul-javohir” bitib otingg‘a,
O‘kush vasf darj ayladim zotingg‘a –

Ki, anjum durin gar to‘kar charxi kuz,
Emas bir guharning bahosi hanuz.

“N.J.” 2 qismdan iborat: muqaddima va ruboiylar. Muqaddimada Alloh hamdi, Muhammad (s.a.v.) na’ti, choryorlar ta’rifi keltirilib, so‘z va uning martabalari – a’lo (yuksak), avsat (o‘rta) va adno (tuban) va xususiyatlari, asarning yo-

zilish sababi va vaqti ko‘rsatilgan. Fikrlarining ifodasi va tasdig‘i u-n shoir muqaddimada 30 ta ruboiy keltirgan. Binobarin. “N.J.” 298 ta ruboiydan iborat. Diqqatga sazovor jihati shundaki, bu ruboiylarning barchasi har to‘rtala misrasi o‘zaro qofiyalanadigan taronai ruboiydir. N.ning o‘zi bunday ruboiylarni ruboiya deb ataydi.

Albatta, N. Hazrat Ali (r.a.) hikmatlari orasidan islom dinining insonparvarlik g‘oyalari in’ikosi bo‘lgan va tasavvuf ta’limotining ma’naviy kamolot masalalari b-n bog‘liq jihatlariga uyg‘un, ayni paytda o‘zining ijtimoiy-falsafiy, ma’naviy-axloqiy qarashlariga mos namunalarni tanlab olib, ularda ilgari surilgan fikrlarni davom ettirgan va rivojlantirgan. Bu ruboiylar, asosan, tasavvufiy ruhda bo‘lib, ularda inson tarbiyasi asosiy maqsad qilib olingani bejiz emas. Hazrat Ali (r.a.) hikmatlari N. qalami qudrati b-n yanada teranlashib, ularning yangi qirralari kashf etilgan, rivojlantirilgan, umuminsoniy g‘oyalar b-n boyitilgan, badiiy yuksaklikka ko‘tarilib, yangi va o‘ziga xos mazmun-mohiyat kasb etib, har biri mustaqil asarga aylangan. N. nazmga solish b-n bu hikmatlarga ikkinchi hayot bag‘ishlagan. Bu ruboiylar Hazrat Ali (r.a.) hikmatlarining kengaytirilgan tarjimasi yoki she’riy izohigina emas, balki ular asosida yaratilgan original asarlardir. Chunki N. Hazrat Ali (r.a.) hikmatlarini dastlab bir-ikki misrada sharhlab, keyin ularning yangi qirralarini ochadi, shu mavzudagi o‘zining fikr-u qarashlari b-n boyitadi yoki avval o‘zining ayni mavzudagi mulohazalarini bayon qilib, ularni Hazrat Ali (r.a.) hikmatlari b-n tasdiqlaydi, quvvatlaydi, rivojlantiradi. M-n, quyidagi ruboiy “Qalb ma’yusligi – jon rohatidir” hikmati asosida yaratilgan bo‘lib, bu fikr birinchi misrada bayon qilinib, keyingi uch misrada bu fikr rivojlantiriladi va to‘ldiriladi:

Istar esang osudaliq ish tajrid et,
Faqr ichra o‘zungni moyili tafrid et,

Ko‘nglungni zamon bahrasidin navmid et,
Nafsingg‘a bu ishni sohibi jovid et.

Mana bu ruboiy esa “Kishining qorni dushmanidir” hikmatiga asoslangan bo‘lib, shoir bu boradagi fikrlarini bayon qilib, o‘z mulohazalarini ayni hikmat b-n tasdiqlaydi:

Har kimgaki ko‘p taom yemak fandur,
Bilgilki, najosatqa tani maskandur,

Qorning bila do‘st bo‘lmasang ahsandur,
Nevchunki, er o‘g‘lig‘a qorin dushmandur.

Ad.: *Алишер Навоий. Назм ул-жавоҳир. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Ҳаққул И. Тасаввуф ва шеърият. – Т., 1991; Ражабова М. Алишер Навоий “Назм ул-жавоҳир” асарининг манбалари ва бадиияти. – Самарқанд, 2006.*

E.O.

NAMOZ (f., ar.– salot). Islomning besh shartlaridan biri. Bir kunda besh mahal o‘qiladigan xos ibodat. N. musulmonlarga me’roj kechasida farz qilingan. Qur’on, hadis va fiqhiy kitoblarda namozning farzligi, zarurligi, turlari va ahamiyati haqida aytilgan. Navoiy “S.M.” asarida maxsus namoz haqida ma’lumot berib o‘tgan. N. yolg‘iz va jamoat b-n ham o‘qiladi. Navoiy o‘z fikr-tuyg‘ularini ifodalash u-n N.ga xos bo‘lgan holatlardan ham foydalanadi. Tahoratsiz o‘qilgan N. qabul bo‘lmaganidek, o‘zini poklamagan oshiqning yor ayog‘iga bosh qo‘yishi ham maqbul emas:

O‘zin pok aylamay oshiqki, yor ollinda
qo‘yg‘ay bosh,
Erur ul nav’ zohidkim tahoratsiz
namoz etkay.

Egilib, har tarafdan yor ko‘yini o‘pmoq ayb emas, axir Ka’bada har tarafdan unga qarab N. o‘qish joiz-ku!

Xam bo‘lub yer o‘pmakim ko‘yida
har yondin ne ayb,
Ka’bag‘a joyizdurur har soridin qilmoq namoz.

Navoiyning mahorati shundaki, u har bir narsadan yuksak poetik xulosalar chiqaradi. Uning lirik qahramoni ko‘zida mudom yor xayoli bor ekan, ko‘z “uyi”ni Ka’ba deb tasavvur etadi. (Ko‘z qorachig‘i b-n Ka’baning rangi qoraligida ham ishorat bor). Shunday holatda lirik qahramonning kipriklari go‘yo N. qilib, yoriga sadoqatini, muhabbatini izhor etadi.

To xayoling ko‘zdadur, ko‘z uyi go‘yo Ka’badur,
Kim turub atrofidin kirpiklarim aylar namoz.

Saloti xamsa – Bir kunda o‘qiladigan besh vaqt farz N. Navoiy “V.” asarida yozadiki: “... va xushxon imom va xushovoz muqri mukarrar bo‘ldikim, saloti xamsani mahalla ahli bila qoyim tutub, ul hazrat duosig‘a musharraf bo‘lg‘aylar...”. N. – janoza namozi ma’nosida ham qo‘llanadi. “...so‘rdilarki, (Jaloliddin Rumiydan) sizga namoz (janozani) kim qilsun? Dediki, Shayx Sadruddin!” “...ilgari bordim, namoz qilurda ko‘rdum, bizing bila osmon orasida yashil va oq qushlar namoz qiladurlar”.

Navoiy oldingi payg‘ambarlarning ham namoz o‘qiganlarini “T.A.H.” asarida eslab o‘tadi: “Odam (a.s.)ni Shis g‘usl berib, namoz (janoza) qildi va Hindistonda dafn qildi. Iso (a.s.) iki rak’at namoz qilib, duo qildi”.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Ислом дини. – Т., 2013; Исломнинг беш устуни. Ҳаж. – Т., 2017.*

S.R.



NAMRUD – Qadimgi suryoniy podshohlaridan. Ibrohim (a.s.) davrida Bobilda yashab o‘tgan, ma’budlik da’vosida bo‘lgan butparast hukmdor. Navoiyning “T.A.H.” asarida yozishicha, Ibrohim (a.s.) Namrud ibni Kan’on ibni Kush ibni Iram ibni Som ibni Nuh zamonida tug‘ilgan. (Q.: Ibrohim (a.s.)). Tarix ahlining ittifoqi bila tamomi “olamda saltanat” qilgan to‘rt kishidan biri bo‘lgan. Bu to‘rt kishidin ikkisi payg‘ambar – biri Zulqarnayn, biri Sulaymon alayhissalom”. Va yana ikisi kofir: – biri Namrud, biri Buxtunnasr”. N. ulkan saltanatga ega bo‘lib, xudolik da’vo qiladi va odamlarni haq yo‘lidan chalg‘itadi. Tushida saltanatiga barham beradigan bola tug‘ilishidan bashorat berilgach, tug‘iladigan yosh bolalarni o‘ldiradi, ayollarga zulm qiladi. Shunday bir paytda Ozar xonadonida ham Ibrohim degan farzand tug‘iladi. Lekin u Allohning mo‘jizasi b-n omon qoladi. O‘sib-ulg‘ayadi. Ulg‘ayib, haqiqatni idrok qilgan payg‘ambar bo‘lgach, N.ni Haq yo‘liga da’vat qila boshlaydi. Butxonaga kirib, ularning butlarini ushatadi. Ibrohim (a.s.) va N. o‘rtasidagi ko‘p tortishuvlar, bahslar bo‘ladi. Oxiri N. Ibrohim (a.s.)ni olovda yoqishni buyuradi. Katta gulxan yoqadilar va Ibrohim (a.s.) ni manjaniq b-n olovga tashlashadi. Olov esa Allohning amri b-n “salqin va omonlik” joyiga aylanadi. Bu haqda Qur’oni Karimning “Baqara” surasi, 258-oyat va “Anbiyo” surasi, 69-70-oyatlarida xabar berilgan.

Navoiyning yozishicha, N. Ibrohimning Xudosini o‘ldiraman deb, g‘azablanib “bir sanduqning to‘rt poyasig‘a to‘rt qochirni (kargas qushini) bog‘lab, o‘zi sanduqqa” kirib oladi. Sandiqning “to‘rt yuqori go‘shasi”ga it bog‘laydi, “karkaslar it sori mayl qilib” havoga ucha boshlaydilar. N. Xudoni o‘ldiraman deb “osmon sori o‘q” otadi. Haq taolo uning o‘qini qonga bulab, sandig‘iga tashlaydi. “Va ul nodon Tangri taoloni” otdim deb, karkaslarni sandiqning yuqorisiga, itlarni pastiga bog‘lab, osmondan yerga tushadi. Tangrilik da’vosi yanada kuchayadi, zulmi ham haddan oshadi. Oqibat Ibrohim (a.s.) duosi bila N. lashkarlarini pashshalar guruhi va yellar azob b-n N.ni halok qiladi. Rivoyat qilinishicha, N.ning miyasiga bir pashsha kirib oladi, qachonki miyasini rohatsiz qilsa, bir to‘qmoq b-n boshiga urib turganlar va oqibat shu pashsha dastidan halok bo‘ladi.

Mumtoz adabiyotda Ibrohim (a.s.) Xalil (xalillulloh)ning olovga otilgani, Ka’bani bino qil-

gani, o‘g‘li Ismoil (a.s.)ni qurbonlik u-n bo‘g‘ziga pichoq urgani va h.k. voqealar o‘ziga xos timsol va talmeh san’ati sifatida qo‘llanib keladi. Navoiy Alloh Sabur (sabrli) ismi b-n tajalli qilganida, kofir N.ga ham muroso qilgani va marhamat ko‘rgizganini ta’kidlaydi:

Sabur ismi bila qilsang tajalli,
Qilib Namrudg‘a yuz ming mudoro.

Navoiy “H.A.”ning “Ishq ta’rifi”dagi to‘qqizinchi maqolatida yorning batamom go‘zalligini, uning har bir xilqatini: yuzini, qoshini, xolini, qomatini, minib olgan samandi – ulovini, kiyimini, yog‘lig‘ini bir-bir tasvirlab keladi-da, dastoriga bitta gulni qistirib qo‘yganini sarv va terakka gulni payvand qilganga o‘xshatadi. Shu o‘rinda ko‘ngilga xitob qilib, bunday go‘zal manzaradan taajjubga tushadi va uni Xalil (Ibrohim (a.s.)) o‘zini urgan gulistonga o‘xshatadi.

Bu ne namudori jamil, ey ko‘ngul,
Balki gulistoni Xalil, ey ko‘ngul.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Муҳаммад Сайёид Тантовий. Пайғамбарлар тарихи. – Т., 2021.*

S.R.

NARGIS – oq yoki sariq gulli ko‘p yillik giyoh va uning chiroyli guli. Badiiy adabiyotda obraz o‘laroq mahbubaning ko‘zini bildirib keladi.

Navoiyning “H.A.” dostonida ma’shuqasi b-n xilvat qilgan Anushervon (No‘shirvon)ning N. ko‘zidan uyalib, nojo‘ya xatti-harakatlardan tiyilgani haqidagi hikoyat adab bobidagi oltinchi maqolatda shahzodaning adab va hayosiga misol sifatida keltiriladi hamda ayni fazilati keyinchalik uning odil shoh sifatida olamda dong taratishiga sabab bo‘lganligi ta’kidlanadi:

Ayni hayo birla futuvvat anga,
Bermadi ul amrda quvvat anga.
Nargisini to‘ldurubon yoshidin,
Qo‘pti, dog‘i kechti ul ish boshidin.

To ani oxir bu arig‘ niyati,
Bo‘yla hayo shevasi xosiyati.

Jumlayi olam aro shoh ayladi,
Adlini olamga panoh ayladi.

Tasavvufda amal tufayli qo‘lga kiritilgan ilmning natijasidan shodlik va xursandchilik ramzi bo‘lib keladi. Albatta, ma’shuqaning ko‘zlarini ham N.ga tashbeh etadilar.

Navoiy ijodida N. istiora sifatida ko‘pincha ma’shuqaning ko‘zini bildirib keladi:

Ikki o‘tlug‘ nargisingkim, qildilar bag‘rim kabob,
Biridur ayni xumor ichinda, biri masti xob.

N.i shahlo N.ning bir turi bo‘lib, unda sariq rang o‘rniga qora bo‘ladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва таъбироти ирфоний. – Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.); Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005; Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 2. – Душанбе, 1988; Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик, 3-жилд. – Т., 2007; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 2. – Душанбе., 1989.*

E.O.

NARD – Sharqda keng tarqalgan, shaxmat kabi ikki taxtada o‘ynaladigan o‘yin. O‘yin qoidasiga ko‘ra, nard o‘yinida 15 (goh 16), qora va oq (ko‘k va h.k.) donalar (tosh, figura, N.da muhra) ikki kishi tomonidan o‘ynaladi. Ular olti tomoniga olti xil raqam belgisi qo‘yilgan, kvadrat shaklidagi ikki suyak (soqqa, N.da ka’batayn)ni havolatib taxtaga otish va u taxtaga tushgach, ustida qaysi raqamni ko‘rsatganiga qarab donalarni surish va belgilangan marraga tez yetkazish orqali g‘olib yoki mag‘lub bo‘li-

shadi. Suyak soqqalar havolatib otilganda qaysi tomoni qaysi raqam b-n taxtaga tushishini oldindan aytish qiyin. Donalarning marra tomon harakati esa shunga bog‘liq. Binobarin, o‘yin oqibatini ham oldindan belgilash mushkuldir. Rivoyatlarga ko‘ra, bu o‘yinni Eron shohi No‘shiravonning mashhur vaziri Buzurgmehr Hindistonda shaxmatning ixtiro etilishiga javob sifatida ixtiro qilgan va Hindistonga tuhfa qilib yuborgan.

Navoiy “H.A.” dostonining kirish qismida hamma narsani yaratgan va harakatga keltirib turgan Xudo madhiga kirishar ekan, olamda yuz berayotgan barcha ishlarning, harakatlarning murakkab va sirli, kishi irodasiga bog‘liq emasligini, ularni oldindan bilish qiyinligini ana shu nard o‘yiniga o‘xshatadi. Bunda N. ikki taxtani yer va osmonga, ikki suyakni oy va quyoshga muqoyasa etadi. Tun-u kun yulduzlar b-n sadaf taxtada soqqabozlik o‘yini namoyish etiladi:

Mintaqa birla falaki lojuvard
Sun’i bisotida iki taxta nard.

Solmoq uchun toqi sipehr ichra shayn,
Oy-u quyoshdin qilibon Ka’batayn.

Taxta kelib charxi munaqqash anga,
Burj hisobidin iki shash anga.

Tun kun ila muhra namudorlik,
Anjum ila taxta sadafkorlik.

Bunda Navoiy tabiat va jamiyat hodisalarini muqoyasa yo‘li b-n tushuntirar ekan, ulardagi murakkablikni, ilohiy nizomni obrazli qilib bayon etadi. N. o‘yini unsurlari, atamalari b-n bog‘liq tasvirlar shoirning boshqa asarlarida ham uchraydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011.*

Ab.H.

NASIB – qasidaning boshida madhdan avval keladigan va yor vasfi, tabiat tasviriga bag‘ishlangan muqaddimaviy qismi. Atoulloh Husayniy “Badoye’ us-sanoye’”da ta’kidlashicha, “Nasib lug‘atta tashbib ma’nosidadir. Istilohda (alloma debtur) andoq kalomdurkim, mahbublar muhabbati, ular ahvolining zikri va ular ishq-u muhabbatining tasarrufiga dalolat qilur. Shavq izhori-yu do‘stlarning manzilin yod etmak va yomg‘ir-u shamol-u hokazolar ta’sirida ularning o‘zgarmog‘ining bayoni ham munga doxildur”. N.da yana zamon qiyinchiliklari-yu firoq azoblaridan shikoyat ham ifodalanishi mumkin. “Nasib bezagidan xoliy bo‘lgan qasidani majzud, ya’ni nasibdan olib qoldirilgan va muqtazab, ya’ni nasibdan kesib qolingan, deb atarlar”. Taomilda bunday qasidalarga nisbatan “Qasidayi mujarrad” istilohi ishlatiladi.

Odatda, qasidaning asosiy qismi madhdan iborat bo‘ladi. Lekin Navoiy Husayn Boyqaroning taxtga o‘tirishi (1469) munosabati b-n yozgan yagona o‘zbekcha “Hiloliya” qasidasida butunlay boshqacha manzaraning guvohi bo‘lamiz: 91 baytli qasidada N. b-n gurezgoh qariyb uchdan ikki (57 bayt) qismni tashkil qilgani holda, madh (29) b-n duo (5) 34 baytdan iborat. Bu qasidanavislik tarixida ko‘rilmagan hodisa. Shuningdek, qasida madhning tabiiy ravishda yuzaga chiqishini mantiqan asoslovchi syujet chizig‘iga ega bo‘lib, lirik dostonga o‘xshab ketadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик, 3-жилд. – Т., 2011; Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Т., 1983.*

Y.I.



NASILOV Dmitriy Mixaylovich (1935) – f.f d-ri, prof. U “Лингвистические взгляды Алишера Навои” (“Alisher Navoiyning lingvistik qarashlari”) maqolasida shoirning o‘rta asr turkiy tillar shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatganligini ta’kidlagan. Tilning paydo bo‘lishini shoir islom aqidalaridan kelib chiqib izohlaganligini ta’kidlab, shoirning so‘z

va uning ma’nosiga alohida e’tibor berganligiga diqqat qaratgan.

Ad.: *Лингвистические взгляды Алишера Навои // История лингвистических учений. – М., 1968.*

E.U.

“NASIM UL-XULD” (“Jannat nasimi”) – N.ning fors-tojik tilidagi “S.Z.” qasidalar turkumining oxirgi 6-qasidasi (132 bayt). Hazaji musammani solim vaznida yozilgan (mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun – V – – – / V – – – / V – – – / V – – –). U Xoqoniy Shirvoniyning “Qasidayi shiniya” (“Piri ta’lim”), Amir Xusrav Dehlaviyning “Mir’ot us-safo”, Abdurahmon Jomiyning “Jilo ur-ruh” qasidalariga tatabbu’ sifatida yozilgan. N.ning “M.L.” asarida shoirning o‘zi “Bu qasidag‘a dog‘i ko‘p maoniy gavhari darj va umr naqdi xarj bo‘lubdur”, – deb yozadi.

Shoir oldingi qasidalarida tilga olgan tasavvuf, faqr martabasi va unga erishish yo‘llari haqidagi fikrlarini yangi poetik talqinlar b-n chuqurlashtirgan va bir tizimga solgan. Bu qasidada oldingi qasidalarda ko‘ringan tanqidiy qarashlar yo‘q. Bunda inson poklanishi va komillikka erishishi u-n nimalar qilishi lozimligi, tariqat odobi va usullari, pir va murid orasidagi munosabatlar, Haq yo‘liga kirgan odam oldiga qo‘yilgan talablar birma-bir bayon etiladi. Xullas, N.ning naqshbandiya tariqati, tasavvuf haqidagi qarashlari yaxlit tizimda she’riy til b-n ifodalab beriladi. Shoir nazarida inson axloqini takomillashtirish, uning ruhiy-ma’naviy olamini yuksaltirib, insoniylik sharafiga musharraf etishning eng to‘g‘ri yo‘li – tariqat, inson suyanishi va qalbidan joy berishi lozim bo‘lgan g‘oya – tasavvuf g‘oyasidir. Shu ma’noda “N.X.” qasidasini naqshbandiya tariqatining she’riy bayonnomasi, o‘ziga xos dasturi desa bo‘ladi.

Asar tasavvufning muhim masalalaridan biri – Ishq va Aql qiyosi b-n boshlanadi. M-n:

Muallim Ishq-u piri Aql shud tifli dabistonash,
Falak don bahri ta’dibi vay inak charxi gardonash.

Tarj.: Ishq – muallim, keksa Aql esa uning maktabining o‘quvchi bolasi bo‘ldi. Falakni uning tarbiyasi b-n mashg‘ul bo‘lgan deb bil, aylanuvchi charx ham.

Qalb – Ishq makoni. Ya’ni irfoniy tafakkurning bosh yo‘li va suyangan usuli – ana shu ishqdir. Ishq shu bois ham aqldan ustun. Shu bois ham aql uning ta’limini ololmaydi, Aql Ishqqa shogird tusha olmaydi, chunki Ishq b-n kashf etiladigan bilim, tuyg‘u, huzur-halovat aqlga begona. Ishq va Ishqdan tug‘ilgan jazba so‘fiyni oliy maqomlarga olib chiqadi, murodiga yetkazadi.

N. ta’rifiga ko‘ra, Ishq – nur, Aql – zulmat; ular o‘zaro birlashishi mumkin emas:

Az on ustod-u shogirdi natija kay shavad hosil,
Ki on shud nuru in zulmat, ba ham
omext natvonash.

Tarj.: Bu ustoz-shogirdlikdan natija chiqishi qiyin, chunki u (Ishq) nurdir, bu (Aql) esa zulmatdir, ularni bir-biriga qo‘sholmaysan.

Shundan keyin N. so‘fiylar tasavvuridagi jannat ta’rifiga bir necha bayt bag‘ishlaydi. Bu jannat bog‘ining sarv daraxti imon bog‘ining aliflaridir, unda Haq subhonahu kalomi ohangi tinmaydi, anhorlarda muqaddas suvlar ravon, havzi Xizr chashmasidek zilol va abadiy hayot berguvchi, gulistonining gullari oftob varaqlari kabi go‘zal va porloq. Bu gulshan, deydi shoir, ma’rifat bog‘i bo‘lib, u Komil inson makonidir.

Demak, jannat deganda shoir ikki narsani – solih bandalari u-n Parvardigor oxiratda in’om etadigan dorulbaqoni va Komil inson ko‘nglini nazarda tutadi. Komil inson ma’rifat bog‘ining posboni, Yazdoni pok asrorining oshnosi. Lekin Komil inson bu sharafni Ishq tufayli topdi. Ishq nihoniy ganj – botiniy olamini obod qilib, zohir olami – badan mulkini vayron etdi.

Qasidada 24 bayt Komil inson ta’rifiga bag‘ishlangan.

N. tasviriga ko‘ra, Komil inson sifatlari quyidagilardan iborat: botiniy olami sarishta, zohiriy ko‘rinishi parishon, badan mulki e’tiborsiz, vayrona, ichki olami – qalbi esa obod va nurafshon,

botinda vasl daryosida cho‘mgan, ammo tashqi ko‘rinishda jismi axloqiy-ilohiy fazilatlar kasb etib, ma’rifat ummonida nur kemasiday suzadi. Doim xafiy zikr b-n band, ammo kiygani janda, xirqa. Uni malomat qiladilar, biroq uning dilida Allohning Vohid ismi alifday mustahkam turadi. Bir ko‘z ochib-yumguncha Mag‘rib-u Mashriqni kezib chiqadi, quyosh kabi olamni nigohi qamrab olgan. Nafsoniy lazzatni tark etgan, himmati osmon qadar oliy. Agar vajdga berilsa, falak uning etaklari ostiga tushadi. Na dunyo voqealari, na falak hodisalari uni chalg‘itolmaydi, axir Arsh farishtasi Nuh to‘fonidan qo‘rqadimi?!

Ko‘rinadiki, bu ta’rif-tavsiflarda Naqshbandiya tariqati talablari ifodalangan. Zohirga emas, botinga e’tibor berish, zohir – xarob, ammo botin – quyoshday porloq. Botiniy xotirjamlikda yashab, zikrni ham botiniy ijro etish, malomat tig‘iga duchor bo‘lsa-da, parvo qilmay, dilda Vohidi azalni saqlash. Xullas, zohir va botin tazodi izchil qiyoslab boriladi.

Bundan keyin N. ana shu martabaga talabgor odam u-n zarur bo‘lgan ishlar bayoniga o‘tadi. Ya’ni bu martabani egallash u-n: 1) nopok nafs bahridan o‘tish; 2) gunohlardan pushaymon bo‘lib, tavba qilish; 3) bir komil murshid topib, uning rahnamoligini qabul qilish lozim. Qizig‘i shundaki, N. bu yo‘lga kirish hech qachon kech emas va hech kim u-n yo‘l berkitilmagan, degan fikrni aytadi. Boshqacha aytganda “yomon tabiati ma’lum bo‘lganlar ham agar ular yaxshilar shevasiga moyil bo‘lsalar” tariqatga kirishi mumkin, chunki bu Xudovandi Karimning tavfiqidir.

Shoir faqr haqida ham ancha keng to‘xtab o‘tadi. Riyozatning natijasi faqr-u fano, ya’ni ilohiy axloq va yuqori maqomlarga sohib bo‘lish. Faqrning belgilari deb N. qanoat, shukr, tavakkul, rizo, Haq siriga ogohlikni tilga oladi. Faqir odamning dili ravshan, riyo va makrdan xoli, rahm-u shafqatga limmo-lim bo‘ladi. Faqr dunyo mahbubini sevishni inkor etmaydi, ammo bu majoziy ishq haqiqiy ishq u-n vosita bo‘lsagina maqbuldir.

Shu tariqa, agar “Tuhfat ul-afkor” qasidasida faqr martabasining ulug‘vorligi, uning shohlik va saltanatdan ustunligi haqida so‘z borsa, “N.X.”-da faqrning mohiyati, belgi va fazilatlari, faqrga ko‘tarilish yo‘llari go‘yoki tahlil etiladi, batafsil tushuntiriladi.

Ushbu qasida Husayn Boyqaroga bag‘ishlangan. N. – Foniy nazarida Husayn Boyqaro shoh bo‘lsa-da, faqr martabasini qozongandir:

Buvad oyini darveshoni komil in ravish bingar,
Chi zebo oyad ar zohir kunad shohoni davronash.

Zi shohon niz nabvad loyiqi in rutba, juz shohe,
Ki darveshi zi shohi bartar ast az ayni irfonash.

Shahi darveshvash, sultoni faqroin, ki az Ezid
Farozi taxti shohi faqr-u darvesh ast dar shonash.

Tarj.: Komil darveshlarning e’tiqod-oini shunday, ko‘rgin: agar buni zamon shohlari ham zohir etsalar qanday yaxshi bo‘lardi. Shohlardan ham bunga loyiqlari yo‘q, faqat irfoni mohiyatidan darveshligi shohligidan ustunligi ko‘rinib turgan shohgagina bu nasib etilgan. Darveshtabiatli shoh, faqr e’tiqodli sultonki, Ezid taolo uning sha’niga faqr-u darveshlikni shohlik taxtidan baland qilibdir.

Xullas, “S.Z.” qasidalar turkumi darveshlik va faqr g‘oyalarini tarannum etish, insonni sharaflash, ilohiylashtirishning yo‘li tariqat ekanini ko‘rsatish b-n yakun topadi.

Bu – ulug‘ mutafakkir N.ning e’tiqodi, hislari, shuurini qamrab olgan muqaddas g‘oyalarining ifodasidir.

“N.X.”da “so‘fiyona odob-axloq, tartib-nizom, shayx-u solik tizimi, orifona yuksalish, komillik martabasi, fano va baqo hay’ati ta’sirchan bir usulda ifodalangan va u olam va inson u-n xos va mos quvva, joziba, harakat va taqdir b-n payvand bo‘lgan. “N.X.” qasidasining mohiyati shunda va uni shunday tushunish kerak. Qasida haqparastlik yo‘lidagi buyuk, tengsiz va muhtasham bir bino bo‘lib, uning sohibi Haqqa erishgan alloma zot va avliyolik maqomini egallagan N. hisoblanadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ситтаи зарурия. – Т., 2008; Комилов Н. Хизр чашмаси. – Т., 2005; Абдуллаев А. "Насим ул-хулд" қасидасида ирфоний ғоялар // ЎТА, 2007, № 1.*

N.K., E.O.



"NASOYIM UL-MUHABBAT" ("Sevgi shabbodalari") – N. asari. 1495–1496-yy.da Abdurahmon Jomiyning "Nafahot ul-uns" asari ta'sirida yozilgan. N. Jomiy asariga tanqidiy qaragan. U "burung'i zamondag'i mashoyixdin barchasining zikrin qilmaydurlar va o'z muosirlarining ko'pini, o'zlarin ham bitmaydurlar" der ekan, asarda Jomiy, Lutfiy, Ashraf Muflisiy, Shayx San'on, Nosir Xisrav, Nasimiy va shular qatori Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy kabi mashoyixlarning faqat so'fiyona qarashlarinigina yoritmasdan, adabiyot va jamiyatdagi o'rnini ham belgilashga e'tibor qaratgan. "N.M."ning ba'zi nusxalari O'zR FA ShI Qo'lyozmalar fondida saqlanadi. (inv №3415, 875, 3420, 8514, 1825). Ma'lumki, o'tmishda tarjimaga munosabat hozirgi realistik tarjima tamoyillaridan farq qilgan: tarjima ham original ijodga teng ko'rilgani u-n tarjimonlar asliyatga erkin yondashganlar – davr talabi, o'quvchilar ehtiyoji, o'zlarining did va qarashlari, estetik qarashlaridan kelib chiqib, unga muayyan o'zgartirishlar kiritganlar, qisqartirganlar, qo'shganlar. N. ham tarjima jarayonida Farididdin Attorning "Tazkirat ul-avliyo"sidan "Nafahot ul-uns"da bo'lmagan 19 ta "kibor mashoyix" zikrini qo'shadi. Yana "Hind mashoyixi" haqidagi ma'lumotlar yetarli bo'lmaganligi u-n qutb ul-avliyo Shayx Farid Shakarganjdan tortib to so'nggi mashoyixgacha bo'lgan 40 dan ortiq tarjimayi holni ilova qiladi. Ahmad Yassaviydan to o'zining zamonigacha bo'lgan turk mashoyixi "zikrlarin va ba'zi holotu so'zlarin" imkon boricha topib, darj etadi. Bugina emas, asarni ancha-muncha tahrir qiladi, zamon ahlining uncha ehtiyoji bo'lmagan o'rinlarni qisqartiradi, ba'zi joylarni esa to'ldiradi, 214 ta shayx hayoti haqidagi ma'lumotlarni qo'shadi. Bu o'zgarishlar natijasida "valoyat riyozi muhabbat shamimig'a sabab" bo'lgani u-n tarjimani "Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim ul-futuvvat" ("Ulug'lik xushbo'yliklarini taratuvchi muhabbat shabbodalari") nomi b-n ziynatlaydi. Tarjima jarayonida N. tarjimani Attor, Shayx Farid Shakarganj kabilarning shu tipdagi kitoblaridan olingan qo'shimcha materiallar b-n boyitadi. Shu tariqa, "Nafahot ul-uns"da 616 ta shayx ul-mashoyix haqida ma'lumot berilgan bo'lsa, "N.M."da ular soni 770 taga yetadi.

"N.M." asari kirish qismi va 770 (shulardan 35 ayol shayxlar) shayx hayotiga oid ma'lumotdan iborat. Ma'lumotlarda hadis, hikmatli so'z, naql, ibora va she'riy misralar ham keng qo'llanilgan.

Kirish qismida N. Jomiy asarining mohiyati, mazmun-mundarijasi, yozilgan yili, o'zining qo'shgan yangilik, qo'shimchalaridan kitobxonni to'la xabardor qiladi: "Ul kitob xaloyiq orasida mashhur va o'qumoq va bitimagi shoe' bo'ldi... ul kitob alfozi forsiydur... Ammo turk ulusidin ba'ziki ko'ngul sidq-u safosig'a bahramanddurlar, bu kimyo asar so'zlar ta'siriga Tengri inoyatidin arjumand ul alfozg'a vuquf qillatidin daqoyiqi alarg'a noma'lum.

Xotirg'a kechmishkim, agar sa'y qilsam, kitobni turkiy tiliga tarjima qila olg'aymumen? Ul daqoyiq mushkilotini ravshanroq alfoz va ... ado bilan o'tkara olg'amumen, deb muddaodin o'zumni azimlig'i va dushvorlig'i jihatidin shuru' qila olur erdim. To Tarix to'qquz yuz birdaki, ul kitobning .... yigirma yil o'tub erdi, Tengri taolo tavfiqi birla bu ulug' ishg'a ilik urdum".

Demak, asar 901 hijriyda – 1495–1496 milodiy yilda yozilgan.

"N.M.", "Nafahot ul-uns" asosida yaratilgani sababli, undagi fikr-mulohazalar, g'oyalar, ilm-u hikmatlar ikki maslakdosh adib – Jomiy va N.ga taalluqlidir.

"N.M."da aytilganidek, tasavvuf tariqatining qonun-qoidalari, shayx-u mashoyixlarga xos xu-

susiyatlar va ular hayotiga oid lavhalarni, yodnomalarni bayon etadi. Shayxlarning shaxsini ta'riflaydi, kasb-hunariga e'tibor qaratadi, halol mehnat b-n tirikchilik o'tkazishini fazilat, deb talqin etadi. M-n, Shayx Abu Said Xarroz o'tuk tikar edi, Shayx Muhammad Sakkokiy pichoqchilik, Shayx Abu Hafz Hadddod temirchilik, Shayx Abulabbos Omiliy va Shayx Abusaid Abulxayr qassoblik b-n, Shayx Ibrohim Ojariy g'isht quyuvchilik, Shayx Bannon – hammol, Shayx Abul Hasan – najjor, Pahlavon Mahmud – po'stindo'zlik kasbi b-n shug'ullanar edilar. O'zbek tarjimashunosligida "N.M.", "Nafahot ul-uns"ga qiyosan o'rganilmagan. Holbuki, bunday tadqiqot nihoyatda muhim. O'shanda asarning qanchasi tarjima-yu qanchasi original ekanligi oydinlashar va mutarjimning tarjima asosida deyarli yangi asar yaratgani va haqli ravishda mualliflik huquqiga egaligi ilmiy asoslanar edi. Bunga Hofiz Sheroziy haqidagi mo'jaz bir maqolacha qiyosi misolida ham ishonch hosil qilish mumkin:

"Vay lison ul-g'ayb va tarjimon ul-asror ast. Baso asrori g'aybiya va maoniyi haqiqiya, ki dar kisvati surat va libosi majoz boz namudaast, harchand ki ma'lum nest, ki vay dasti irodati pire girifta va dar tasavvuf ba yake az in toifa nisbat durust karda, ammo suxanoni vay chunon bar mashrabi in toifa voqe' shuda, ki hech kasro in ittifoq nayaftod".

Tarj.: Alar lison ul-g'ayb va tarjumon ul-asrordurlar. Baso asrori g'aybiya va maoniyi haqiyiyaki, surat kisvatida va majoz libosida ado qilibdurlar. Agarchi ma'lum emaski, alar irodat iliki bir pirga bermish bo'lg'aylar va tasavvuf tariqida bu toifadin biriga nisbat durust qilmish bo'lg'aylar. Ammo so'zlari andoq bu toifa mashrabi bila muvofiq voqe' bo'lubdurki, hech kishiga andoq ittifoq tushmaydur.

Ko'rinib turibdiki, o'zgartirish, qisqartirish va to'ldirish qilinmagan o'rinlarda tarjima asliyatga, deyarli, so'zma-so'z muvofiq. Lekin Jomiyning umumiy ma'lumot berish b-n kifoyalangani N.ni qoniqtirmaydi va shoir ijodining mazmun-mohiyati, o'ziga xos xususiyatlari, badiiy yuksakligi sabablarini ochib beruvchi quyidagi parchani qo'shadi – bu Hofiz merosiga berilgan xolis va teran ilmiy baho ekanligi b-n muhim ahamiyat kasb etadi:

"Dog'i alfoz latiflig'i va tarkib pokizalig'i va ravonlig'i va ado salosati va latofati va ma'no g'ariblig'i choshnisidin xud alarni ta'rif qilmoq hayot suyin jonbaxshliqqa ta'rif qilg'ondek bo'lg'ay".

Yana bir jumla tarjima ketadi:

"Yake az azizoni silsilayi xojagon, qaddasalohutaolo asrorahum. farmudaast, ki: "Hech devon beh az devoni Hofiz nest, agar mardi so'fiy boshad".

"Xojalar, qaddasallohu taolo asrorahum, silsilasidin azize debdurki: "Hech devon Hofiz devonidin yaxshiroq emas, agar kishi so'fiy bo'lsa".

Shundan keyin mazkur fikrlarni rivojlantiruvchi va to'ldiruvchi yana bir ta'rif keltiriladi:

"Bu faqirg'a andoq ma'lum bo'lubdur va mashhur mundoqdurki, Hazrati Mir Qosim, qaddasallohu sirrahu, alarning devonini "Qur'oni forsiy" der emishlarki, Kalomulloh oyoti maoniysidin mamlu va asror-u nukotidin mashhurdir". Nihoyat, maqolani mutarjim muallif so'zlari b-n yakunlaydi:

"Va chun ash'ori vay az on mashhurtarast, ki ba erod ehtiyoj doshta boshad, lojaram inoni qalam az on masruf megardad. Va vafoti vay dar sanayi isnayn va tas'ina va sab'imiatin (soli 792) budaast, rahimahullohu taolo".

"Chun alarning ash'ori maorifnigori andin mashhurroqdurki, irodg'a ehtiyoj bo'lg'ay. Har oyina qalam inoni andin masruf qilindi, Alar yetti yuz to'qson ikkida olamdin o'tubdurlar".

Ma'lum bo'ladiki, "Nafahot ul-uns"dagi Hofiz haqidagi ma'lumotlar Jomiyning o'zigagina tegishli bo'lsa, "N.M."dagi fikrlar ham Jomiyga, ham N.ga tegishli – N. uni shoir ijodini xarakterlaydigan baho-xulosalar b-n boyitgan. Bunday fikrni barcha tarjimayi hollar haqida aytish mumkin. Aytib o'tilganidek, 214 ta ma'lumot N.ning o'ziniki. Shuning o'zi tazkiraning originallik darajasi tarjimadan ustunligini ko'rsatadi. Asar

oxirida 35 ta avliyo ayollar ham zikr etiladi. Bu ma’lumotlar ayni paytda ayollarning ham tasavvufda o‘z o‘rni borligidan dalolat beradi.

Toshkent, Sankt-Peterburg va Turkiya kabi davlatlarda “N.M.”ning qo‘lyozma nusxalari saqlanadi.

“N.M.” asari 2001-y. 20 jildlik MAT tarkibida (17-jild) adabiyotshunos olimalar S.G‘aniyeva va M.Mirzaahmedovalar tomonidan nashr bo‘lgan. 2011-y. esa 10 jildlik TAT to‘plami tarkibida (10-jild) S.G‘aniyeva va S.Rafiddinovlar tomonidan chop etilgan.

Asarning tanqidiy matni muallif yashagan davrda ko‘chirilgan nusxa asosida 1996-y. Turkiya (Anqara)da Kamol Eraslon tomonidan yaratilgan. N.shunos olim H.Islomov “N.M.” asarining ilmiy – tanqidiy matni bo‘yicha 1990-y. nomzodlik ilmiy ishini yoqladi va 2011-y. “N.M.”ni bir necha qo‘lyozmalar asosida ilmiy-tanqidiy matnini yaratib, chop qildirdi.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Абдураҳмон Жомий. Нафаҳот ул-унс мин ҳазарот ул-қудс. – Теҳрон; Маҳмуд бин Усмон Али Ломиъий . Нафаҳот ул-унс мин ҳазарот ул-қудс. – Истанбул, 927 (1521); Нафаҳот ул-унс мин ҳазарот ул-қудс. – Душанбе, 2013; Рамазонов Н. “Насойим ул-муҳаббат” ва унинг манбалари // “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2001, № 1; Рамазонов Н. “Насойим”нинг ўзига хос хусусиятларига доир // Навоийнинг ижод олами (Мақолалар тўплами). – Т., 2001; ЎзМЭ. Насойим ул-муҳаббат. 6-жилд. – Т., 2003; Сирожиддинов Ш., Юсупова Д., Давлатов О. Навоийшунослик. – Т., 2018.*

E.O., B.R.

NASR (ar.) – 1. Sochish, to‘kish, parokanda qilish. 2. Badiiy nutq shakllaridan biri; sochma. Vazn-u qofiyaga solinmagan, tarqoq matn. Keng ma’noda nazmga qarshi prozaik asarlarni bildiradi.

O‘tmishda Sharqda nazmning poyasi baland bo‘lib, nasrga e’tibor bir qadar past bo‘lgan. Nazmning haddi a’losiga yetib, nasrning oqsagani shundan. “S.S.”ning nazm-u nasr qiyosiga bag‘ishlangan 6-bobida Navoiy bu haqda shunday yozadi:

Bo‘yla so‘z fannida chiqorg‘on ism,
Qildi uslubini aning iki qism.

Har kishi qilmoq istasa ma’lum,
Biri mansur erur, biri manzum.

Nasr-u nazmi angaki mudrakdur,
Nazmining poyasi biyikrakdur.

Navoiy ulug‘ shoir bo‘lishi barobarida, N.da ham mahorat b-n qalam tebratib, “M.Q.”, “N.M.”, “M.N.”, “V.”, “T.A.H.”, “T.M.A.” kabi asarlar yaratgan. Yana dostonlarining har bir bobini nasriy saj’li sarlavhalar b-n ziynatlagan.

Ad.: *Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Фарҳанги забони тожики. Жилд 1. – М., 1969; Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 2. – Душанбе, 1988; Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2010; Ғаниева С. Навоий насри малоҳати. – Т., 2001.*

S.G‘., E.O.

NASRI TOYIR – lug‘aviy ma’nosi “burgut qushi” (nasr – burgut, tayr – qush). N. asarlarida yulduz nomi sifatida keladi. Bu yulduz “Uqob” deb ham ataladi. Sharq olimlarining tassavuriga ko‘ra, N.T. osmonning yuqori qavatida joylashgan. Shu sababli Sharq adiblari, jumladan, N. tomonidan ham balandlik, yuksaklik ramzi sifatida qo‘llanadi.

N. “F.Sh.” dostonining XV bobida u ushbu dostonni yaratishni niyat qilgani haqida yozar ekan, himmatini baland qilib, o‘z oldiga yuksak marra va maqsadlarni qo‘ygan kishining, albatta, o‘z orzusiga erishishi haqidagi mulohazalarini bayon etadi. Mana shu o‘rinda u o‘z fikrlarini badiiy ifoda etishda N.T. obrazidan foydalanadi va

“Himmatdan qanoti bo‘lgan qush past uyaga(inga) iltifot qilmaydi. Nasri Toyir himmat qanotini ochib gardun shabistonida sayr qiladi”, – degan mazmunda ushbu baytlarni bitadi:

Ne qushki bo‘lsa himmatdin qanoti,
Emas rost oshiyonga iltifoti.

Ochib himmat qanoti Nasri Toyir,
Erur gardun shabistonig‘a soyir.

Kim o‘lsa himmat ilkidin kushodi,
Ne topsunkim, topilg‘ondur murodi.

N.T. obrazi N.ning “M.Q.” asarida ham uchraydi. Ushbu nasriy asarning “Fosiq va badmaosh, bahodirliq lofin urg‘onlar zikrida” nomli yettinchi faslida muallif sipohiylar orasida mavjud bo‘lgan takabbur, o‘zlarini bahodirlar deb hisoblaydigan kishilarni tanqid ostiga oladi. Bunda ularga xos bo‘lgan kibr, manmanlik kabi xususiyatlarni fosh qilar ekan, u shunday yozadi: “Bazmida da’volari Hotamlik, razmda talashlari Rustamliq. O‘tag‘alaridin Nasri Toyirg‘a ram, nayzalaridin Simoki Romih yuzi darham”. O‘tag‘a – o‘sha davrda beklar va hukmdorlar bosh kiyimlariga taqilgan (sanchilgan) va ularning maqomi, mansabining belgisi hisoblangan. N. fosh qilayotgan shaxslarning o‘ta katta, bahaybat o‘tag‘alari ularning takabburligi va maqtanchoqligidan darak beradi. N. buni mubolag‘a yordamida “O‘tag‘alaridan Nasri Toyirg‘a ram”, ya’ni ularning o‘tag‘alaridan Nasri Toyir hurkadi”, – deb ifodalagan. Bunda N.T.ning ham yulduz, ham qush ma’nolari nazarda tutilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

Q.E.

NARGISIY – XV asrning ikkinchi yarmida yashab ijod qilgan taniqli hirotlik forsigo‘y shoirlardan biri. Navoiy “M.N.”da u “Nargisiy taxallusini “Ohiy”g‘a (ba’zi qo‘lyozmalarda “Oyatiy”, ba’zilarida esa “Otashiy” deb beriladi) o‘zgartirgani, buning sababini so‘ralganda durustgina javob qila olmaganini yozadi. Navoiy ta’kidlashicha, bu shoir qayerda go‘zal so‘z yoki nozik ma’no ko‘rsa, o‘zlashtirib olishga odatlangan. Navoiy bu shoir taxallusini o‘zgartirganidek shoyad bu odatini ham o‘zgartirsa, deb umid bildiradi. Navoiy uning to‘g‘risida “M.N.”ning uchinchi majlisida juda qisqa ma’lumot berib, uning Marv viloyatidan ekanini aytadi va uning o‘zini “mazlumvash yigitdur”, ya’ni “qiynalgan”, “ezilgan” odam deb ta’riflaydi. “M.N.”ning tarjimoni Faxriy Hirotiy, “Tuhfayi Somiy” tazkirasining muallifi Som mirzolar N. haqidagi Navoiy ma’lumotlarini to‘ldirib, ba’zilariga aniqliklar kiritib, uning Marvdan emas, balki Iroqdan ekanini, “faqir yigit”(“Javoni faqir”) bo‘lganini, Marvga Navoiy xizmati tufayli kelib qolganini, ma’lum bir paytlarda yengiltabiat odamlarga qo‘shilib, vaqtini behuda o‘tkazganini, keyinchalik bu yo‘ldan qaytib “ko‘p vaqtini ro‘za va namoz b-n o‘tkazganini” xabar qiladilar. N.ning 18 g‘azali Faxriy Hirotiy tomonidan tuzilgan “Radoyif ul-ash’or” to‘plamiga ham kiritilgan. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida qo‘lyozmalar fondida inv. № 10024-P da Navoiy g‘azallarining matla’lari keltirilgan. Bu matla’lar b-n tanishishi shuni ko‘rsatadiki, N. chindan ham, Navoiy aytgandek, “mazlumvash yigit bo‘lib, og‘ir hayot kechirgan va she’rlarida bu kayfiyat o‘zining ancha yorqin, ta’sirli ifodasini topgan. Mana uning baytlaridan ayrim namunalar:

Manamki, xotiri shodi nadidaam hargiz,
Zi ro‘zg‘or murode nadidaam hargiz.

Tarj.: Umrida xursandchilik yuzini ko‘rmagan menman; Dunyoga kelib biron maqsadiga yetmagan menman.

Navro‘zi navbahor maro sad alam hanuz,
Gulho shukufti dar dili man xori g‘am hanuz.

Tarj.: Navro‘zi navbahor kelsa, menga yuz alam hanuz; Gullar ochilgan, lekin mening dilimda g‘am tikanlari hanuz.

Ma’lum bo‘ladiki, N. Nargisiyning “mazlumvash yigitdur” deb xarakterlagan. N. Nargisiyning ishqiy mazmundagi quyidagi baytlarni ham namuna qilib keltiradi:

Ba yodi safhayi ruxsori u k-az mah fuzun omad,
Kushodam foli mus’haf “Surayi Yusuf”
barun omad.

Tarj.: Uning yuzi sahifasi yodi b-n “Qur’on”-dan fol ochsam, “Yusuf surasi” chiqdi.

“M.N.”ni birinchi bo‘lib fors tiliga tarjima qilgan va Hirotda yashagan, N.ga zamondosh olim Faxriy Hirotiy Navoiyning o‘zbek tilidagi she’rlaridan “Don olur xoli malohatdin labi xandonida” deb boshlangan baytini keltiradi. Demak, N. fors va o‘zbek tillarida she’r yozuvchi “zullisonayn” shoir bo‘lgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ҳайитметов А. Ҳаётбахш чашма. – Т., 1974.*

S.G‘., Ab.H.

NASIMIY (taxallusi; asl ismi – Ali, laqabi – Imodiddin) (1370, Shamohi – 1417, Halab) – ozarbayjon mumtoz shoiri va mutafakkiri. Fors, arab tillari va adabiyotini chuqur o‘rgangan. Bundan tashqari, mantiq, riyoziyot, tabiat va astronomiya fanlarini o‘zlashtirgan. Mashhur so‘fiy va avliyo Mansur Hallojga kuchli e’tiqod qo‘yib, o‘zini uning haroratli shogirdi hisoblaganidan ilk she’rlarini Husayniy taxallusi b-n yozadi. XIV asrda Ozarbayjonda tasavvufdan o‘sib chiqqan hurufiylik oqimi keng yoyilib, unda inson omili muhim o‘rin tutadi: inson, uning erki ulug‘lanadi; insonga ilohiy quvvatning zuhuri va tajassumi sifatida qaraladi. Ma’lumki, Qur’onning bir necha suralari alif, lom, mim kabi arab harflari b-n boshlanadi. Bu ilohiy harflarni mufassirlar turlicha talqin qiladilar. Hurufiylar esa arab alifbosidagi barcha 32 harfni ilohiylashtiradilar. Zero, bu harflar orqali Qur’on nozil qilingan – ular ilohiy kalom mazmunini o‘zida ifoda etadi. Binobarin, har bir harfda bir ilohiylik mavjud. M-n, dunyoning yaralishiga ham so‘z sabab bo‘lgan: Parvardigori olam “Kun!”, ya’ni “Bo‘l!” degan va bu dunyo vujudga kelgan. So‘z esa harflardan iborat. Arab yozuvida “kun” ikki − kof (k) va nun (n) harflaridan tashkil topgan. N.ning quyidagi bayti shu haqda:

Jo‘sh qildi aqli kull − keldi vujuda koinot,
Kof-u nun amrindan o‘ldi bu jahon yakbor mast.

Hurufiylik tariqatining asoschisi, mashhur shoir va mutafakkir Fazlulloh Naimiy 1394-y.da Shirvonga keladi va N. b-n uchrashadi. Uning hurufiylik qarashlari yosh shoirga kuchli ta’sir qiladi va uni qabul etib, Fazlullohni o‘ziga murshid biladi. Naimiyga hamohang N. taxallusini oladi.

N. turkiy xalqlar, jumladan, o‘zbeklarning ham o‘z shoiri hisoblanadi. Lutfiy, Navoiy, Mashrab va boshqa o‘zbek shoirlari uning shaxsi va ijodiga yuksak ehtirom b-n qaraganlar. Navoiy yirik tariqat shayxlari va mashhur so‘fiylarga bag‘ishlangan “N.M.” asarida turkiy mashoyixlar qatorida unga ham o‘rin ajratadi: “Iroq va Rum tarafidag‘i mulkdin erkandur. Rumiy va turkmoniy til bila nazm aytibdur va nazmida haqoyiq va maorif bag‘oyat ko‘p mundarijdur. Mazkur bo‘lg‘on ahlig‘a aning she’ri muqobalasida hamonoki she’r yo‘qdur. Hamono taqlid ahli aning mazhabida qusur tuhmatig‘a muttaham qilib, shahid qildilar. Mashhur mundoqdurki, terisin so‘yar hukm bo‘libdur. Ul holatda bu she’rni debdurki:

Qibladur yuzung, nigoro, qoshlaring mehroblar,
Surating Mus’haf vale xol-u xating e’roblar.

va bu she’rning taxallusi ushbu muddaog‘a doldurkim:

Ey Nasimiy, chun muyassar bo‘ldi iqboli visol,
Qo‘y, teringni so‘ysa so‘ysun bu palid qassoblar”.

“H.P.M.” asarida: “Sayyid Nasimiyning nazmi o‘zga rang tushubdur, zohir ahli shuarosidek nazm aytmaydur, balki haqiqat tariqin ado qilibdur”, – deb yozadi. Darhaqiqat, shoir o‘z she’rlarida ko‘proq ilohiy mahbubani yonib kuyladi, o‘zi mansub hurufiylik g‘oyalarini ulug‘ladi. Jumladan, tasavvuf falsafasiga ko‘ra inson ibtidoda Parvardigori b-n bir bo‘lgan-u, tug‘ilib undan ayro tushgan. N. ning quyidagi bayti shu xususda:

Yer ila ko‘k bino bo‘lmasdan avval,
Nasimiy oshiq edi ul jamola.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Сечилмиш шеърлар. – Бакы, 1962; Избр. лирика. 1-2 т.–Баку, 1973 –1976; Лирика. – М., 1973; Асарлар. – Т., 1977; Мен бу жаҳонга сиғмасман. – Т., 2012; Девони Имодиддин Насимий. – Теҳрон, 1370 (ҳ.-ш); Азербайжан адабиёти тарихи. – Баку, 1960 (1-жилд); Ариф М. История азербайджанской литературы. – Баку, 1971; Орасли Ҳ. Имодиддин Насимий (ҳаёти ва ижоди). – Т., 1973; Очилов Э. Насимий // ЎзМЭ. 6-жилд. – Т., 2003; Очилов Э. Жаҳонга сиғмаган шоир // Саййид Имодиддин Насимий. – Т., 2012;*

E.O.

NASIRIDDIN TUSIY (taxallusi; to‘liq ismi: Abuja’far Muhammad ibn Muhammad Nasiriddin Tusiy (1201, Tus − 1272, Bag‘dod) – fors-tojik olimi va shoiri. Boshlang‘ich ma’lumotni o‘z davrining fozil kishilari bo‘lgan otasi va amakisi huzurida olib, Nishopurda tahsilini kamolga yetkazadi. Mo‘g‘ullar istilosi davrida 1227-y. Ko‘histonga ketib, o‘sha yerda 1256-y.gacha qoladi, noma’lum sabablarga ko‘ra zindonband ham bo‘ladi. Halokuxon tomonidan Ko‘histon zabt etilgach, Marog‘aga kelib, rasadxona tashkil etadi. U ilmning turli sohalariga oid 200 dan ortiq asar yozgan.

N.T.ning adabiy merosi ham boy va rang-barang. Jumladan, “Asos ul-iqtibos” nomli mantiqqa oid asarining 8 va 9-boblarida ritorika va poetika yuzasidan teran qarashlarini bayon qiladi. Uning “Me’yor ul-ash’or” (“She’rlar o‘lchovi”) (1254) asari aruz bo‘yicha mukammal tadqiqot bo‘lib, hozirgacha ilm-u adab ahli orasida mashhur. Asar aruz va qofiyaga bag‘ishlangan ikki qismdan iborat. O‘z navbatida, har bir qism o‘ntadan faslni o‘z ichiga oladi. Bu asar Xalil ibn Ahmadning aruz va qofiya tizimini o‘rganish va uni arab va fors-tojik she’riyatiga tatbiq qilish jihatidan muhim ilmiy ahamiyatga ega bo‘lgan. U aruzni fonetik va musiqiylik jihatidan o‘rganadi. Fors-tojik she’riyati vaznlari u-n 5 ta doira keltiradi. “M.A.” muqaddimasidan ma’lum bo‘lishicha, shoir N.T.ning “Me’yor ul-ash’or” asari bilar yaxshi tanish bo‘lgan. Uning va salaflarining asarlarida bo‘lmagan qoida va doiralarni o‘z asariga ilova qilganini aytadi.

N.T. iste’dodli shoir ham bo‘lib, g‘azal, ruboiy, masnaviy janrlarida mahorat b-n qalam tebratgan. “Madxali hay’at” (“Suratning namoyon bo‘lishi”), “Tatimma” (“Ilova”) dostonlari mutafakkir shoir ilmiy falsafiy qarashlarining nazmiy talqinidir.

Ad.: *Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 2. – Душанбе, 1989.*

E.O., Sh.R.

NASIHAT AHLI VA VOIZLAR – N. “M.Q.”ning avvalgi qismida o‘z davridagi turli ijtimoiy-siyosiy tabaqa, toifalar ularning atvori haqida fikr yuritar ekan, N.A. va V.ga alohida to‘xtalib o‘tadi. N. bu toifa kishilari, eng avvalo, haq so‘zini targ‘ib-tashviq qilishi, payg‘ambar so‘zidan chetga chiqmasligi kerak, buning u-n uning o‘zi shu yo‘lda sobit bo‘lishi kerak. So‘ngra esa nasihat b-n elni shu yo‘lga boshlamog‘i darkor, – deydi. Aks holda musofirni yo‘ldan adashtirish, o‘zi mast odam hushyorlikka, uy-

quchi kishi barchani bedorlikka da’vat etganiga o‘xshab qoladi. N. voiz shunday va’zxonlik qilishi kerakki, uning majlisiga bo‘sh kirgan to‘lib chiqsin, to‘la kirgan odam esa yengil tortib chiqsin, – deydi. Haqiqiy voiz olim va halol odam bo‘lishi zarur. O‘zi qilmagan ishni boshqalarga buyursa, so‘zi beta’sir bo‘ladi, – deb yozar ekan, bu N.ning shu toifaga ne chog‘lik jiddiy qaraganidan dalolat beradi. N. muhitida mashhur shoir va olim, dovrug‘i keng taralgan Husayn Vo’iz Koshifiy (q.) kabi vo’izlarni juda hurmat qilgan va ular haqida eng samimiy so‘zlarni yozgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

S.G‘.

“NASRI XAMSAYI BENAZIR” – N. “X.” dostonlarining o‘zbek adabiyotidagi ilk izohlovchi nasriy bayoni. “N.X.B.” 1908-y. Toshkent shahri G‘ulom Hasan Orifjonov matbaasida nashr qilingan. 351 sahifadan iborat, hajmi 17x26sm. Matn nastaliq xatida mayda, chiroyli husnixatda bitilgan va yuqori saviyada ko‘chirilgan. Har sahifada xat qatorlari 23 yo‘lni tashkil etadi. Unda dostonlar tarkibidan “F.Sh.”, “L.M.”, “S.S.”, “S.I.” nasriy bayon qilingan. Yaxlit syujetga ega bo‘lmagani u-n “H.A.” bayonga tortilmagan, faqat doston hikoyatlaridan beshtasi nasriy bayon qilinib, “S.S.” bayonidan so‘ng bir qancha hikoyatlar b-n birga berilgan.

Nasriy bayonning muallifi noshir va kitob tojiri Mir Maxdum ibn Shohyunus. Ushbu ma’lumotlar kitobning titul sahifasida qayd etilgan: Janobi shoiri fasih ul-lison Mir Alisherning “Xamsa” manzumalaridan nasr tartibida durfishonliq aylab Mir Maxdum ibn Shohyunus ehtimomi birlan”. Sababi ta’lif qismida nasriy bayonning yaratilish sababi muallif tomonidan qisqacha izohlangan. Xattot va musavvir Rahmatulloh ibn Mullo Abdushukur. Kitobda dostonlar nomi o‘zgartirilgan va quyidagicha joylashtirilgan: 1. Iskandarnoma. 2. Qissayi haft manzari Bahrom. 3. Qissayi Layli va Majnun. 4. Qissayi Farhod va Shirin.

Muallif bayonni o‘sha davr kitobxonlari ehtiyojiga mos ravishda qissa janriga moslagan. Nasriy bayonga tortilgan boblar asliyatdan uzoqlashmagan holda misrama-misra tabdil qilingan. “N.X.B.” o‘z davri kitobxonlariga N. ijodini anglatish, chuqurroq tushuntirish u-n amalga oshirilgan ishlardan biridir.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-жилдлар. – Т., 2011; Тожибоева О. “Хамса” табдилларида давр руҳи. 2015.*

O.T.

NASRIY BAYON – she’riy shaklda yaratilgan muayyan bir asarning nasriylashtirilgan varianti. Mumtoz asarlarni kitobxonga tushuntirish, sharhlab yetkazib berish u-n qo‘llanadigan vosita. Bunday asarlar o‘zbek adabiyotida ilk marta XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida paydo bo‘lgan. Ana shu davrdan boshlab, bir qator nasriy bayonlar yaratildi va ular o‘zbek adiblarining nasriy merosining bir qismi sifatida adabiyotimizdan o‘rin oldi. N.B. bir tomondan, o‘tmishda yaratilgan va keyingi davrlardagi o‘quvchilarning tushunishi va bahra olishi u-n murakkablik tug‘ilgan asarlarni sodda, ommabop tilda o‘quvchilarga yetkazish, ikkinchi tomondan, kitobxonlarning badiiy nasrga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish zarurati tufayli yuzaga kelgan, zero hali adabiyotimizda nasriy epik janrlar (roman, povest) mavjud bo‘lmagan vaqtda nasriy bayon ana shularning o‘rnini muayyan darajada bosgan va to‘ldirgan.

Asardagi murakkab so‘zlarni soddalashtirish orqali yaratilgan tabdil. Dastlab nasriy bayon qilish iste’molda she’riy asarlarga nisbatan qo‘llangan edi, hozirda mumtoz nasriy asarlarni ham zamon kitobxoniga moslab nasriylashtirish ommalashmoqda. N.B. birlamchi asar – asliyatsiz yaratila olmaydi, u doimo asl manbadan keyingi o‘rinda turadi. N.B. shoir b-n kitobxon o‘rtasidagi vosita qurolidir. U asarning ichiga yo‘l topolmay turgan kitobxonga yo‘l ko‘rsatadi, nazmning bor go‘zalligini, misralar qa’ridagi ma’nolar sirini ochishga xizmat qiladi. N.B.ni

bir janr doirasida cheklab bo‘lmaydi, u janrlararo harakat qiladi, uni g‘azalga, ruboiyga, mumtoz adabiyotimizning barcha she’riy janrlariga tatbiq etish mumkin. Boshqa tillardan tarjima qilingan she’riy asarlarni ham ba’zida o‘z holicha nazmda qayta tiklash mushkul bo‘lgani u-n ular ham nasriy bayon qilinadi. Olim N.Komilovning guruhlashiga ko‘ra N.B.lar erkin, ijodiy, izohlovchi bayonlarga bo‘linadi. N.B.lardan mumtoz asarlarni targ‘ib qilishda keng foydalanilsa ham o‘z o‘rnida bir qator qulaylik va kamchiliklarga ega. Qulayligi kitobxonga asardagi murakkab so‘zlarning, qiyin jumlalar, iboralarning mag‘zini chaqib, mazmunini yetkazib beradi. U o‘quvchini yozuvchining ijod olamiga olib kiradi, asarni tezroq tushunib yetishga yordam beradi. Badiiy asardan ma’naviy zavq hissini tuygan kitobxonda asliyatni mutolaa qilish istagi tug‘iladi va bu holat asar targ‘iboti yo‘lidagi kutilgan natijadir. Kamchiligi, hech qaysi N.B. asliyatning o‘rnini bosolmaydi. Mazkur jihatlar she’riy va nasriy matn o‘zaro qiyoslanganda ko‘zga tashlanadi. N.B. nisbiy mohiyatga ega, uni har doim zamonga moslab yangilab turishga ehtiyoj seziladi, vaqt o‘tishi b-n undan keng foydalanishga hojat qolmaydi. Asliyat esa o‘lmas, o‘zgarmasdir. Mohiyatan N.B. o‘quvchiga badiiy asarning bor go‘zalligini tushuntirib, aqlan tayyorlab, asliyat sari olib chiqishi lozim. She’riyatning kishini o‘ziga rom etuvchi bor go‘zalligi ham uning she’riy vaznda, musiqiyligidadir. N.B.larda esa uning go‘zalligini to‘liq saqlab qolishning imkoni yo‘q. Vazn, qofiyalar boy berilishi evaziga mazmun saqlanib qolinadi, xolos. N.B. asar mag‘zini chaqib, o‘quvchini unga yaqinlashtirish barobarida ayni damda undan uzoqlashtiradi ham. Chunki ayrim kitobxonlar tayyor nasriy bayon mutolaasidan so‘ng asliyatni o‘qib ko‘rishga ehtiyoj sezmaydilar, uning o‘zi b-n qanoatlanadilar. O‘zbek adabiyotida eng ko‘p yaratilgan N.B.lar N. ijodi b-n bog‘liq. N.ning “X.” dostonlari an’anaviy tarzda 1939–40-yy.dan boshlab nasriylashtirilib kelinmoqda. S.Ayniy tomonidan 1940-y. “X.” dostonlarini mustaqil sharhlash, izohlash yo‘li b-n amalga oshirilgan nasriy bayoni tayyorlangan. 1941-yy.da Shoir G‘afur G‘ulom tomonidan “F.Sh.”, Amin Umariy va Sh.Husaynzoda tomonidan “L.M.”, Inoyat Maxsumov tomonidan “S.I.”, “S.S.” dostonlarining nasriy bayonlari ishlab chiqildi. Mazkur nasriy bayonlar dostonlarning aynan misrama-misra bayonlari bo‘lib, asl matn b-n yonma-yon berilgan va lotin alibosida nashr qilingan. “F.Sh.” dostonining N.B.i 1948, 1956-yy.da qayta to‘ldirish va tuzatishlar kiritilib, asliyat b-n yonma-yon nashr etilgan. 1975-y. A.Hayitmetov tomonidan to‘ldirilib, dostondan alohida mustaqil nashr qilingan. 1940-yy.dagi nasriy bayonlarda hajm siqiqligiga rioya qilingan bo‘lsa, ushbu nashrda ma’noni ochib berish u-n so‘zlardan erkin foydalanilgan. Bayon mustaqil mutolaa qilish u-n ham mo‘ljallangan. Doston A.Hayitmetov tomonidan qayta tuzatishlar b-n 1982-y. yana nashr qilingan.

“L.M.” dostonining 1941-y. Amin Umariy va Sh.Husaynzoda tomonidan tayyorlangan N.B.i 1949-y.da ikki tomda, 1958-y.da yana to‘ldirishlar b-n nashr qilingan. 1977-y.da V.Rahmonov va N.Norqulov qayta tahrir va tuzatishlar kiritib alohida kitob holida chop qilgan. 1990-y.da shu mualliflarning yana to‘ldirish va tuzatishlar kiritilgan dostonning nasriy ifodasi asliyat b-n birga nashr qilingan. Inoyat Maxsum va Yunus Latif tayyorlagan “S.I.”ning N.B.i 1978-y. Inoyat Maxsumov tomonidan qayta to‘ldirilib, alohida nashr qilingan. 1991-y. M.Hamidova to‘ldirishlar, tuzatishlar kiritib, asliyat b-n birga nashr qildirdi. “S.S.” dostonini Inoyat Maxsumovdan so‘ng S.Hasanov qayta to‘ldirish va tuzatishlar b-n ta’minlab, asliyat b-n birga nashr qildirdi. Dostonlar sirasidan “H.A.” dostoni nisbatan kechroq bayon qilindi. 1970-yy.ga kelib A.Hayitmetov dostonning N.B.ini amalga oshirdi va shu yillarda nashr qilingan “X.”ning boshqa dostonlari singari alohida kitob holida nashr qildirdi. Yuqoridagi N.B.larda “X.”ning muqaddima, xotima va ayrim boblari nasrga tortilishi davr talabiga ko‘ra turlicha bo‘lgan. 2013-y. A.Hojiahmedov tomonidan “X.”ning qisqartirilgan

N.B.i chop etildi. Keyinroq, 2019-y. U.Yo‘ldoshev “X.”ning to‘la N.B.ini, 2021-y. tadqiqotchi A.Malik “H.A.”ning uchta N.B. kitobini e’lon etishdi. 2021-y.da D.Yusupova va O.Davlatovlar “X.” dostonlarini alohida-alohida asl matni b-n birgalikda nasriy bayonini chop ettirishdi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-жилдлар. – Т., 2011; Ўзбек адабиёти тарихи. 5 жилдлик, 2-жилд. – Т., 1977; Умар Боқий. “Фарҳод ва Ширин”, “Лайли ва Мажнун”. – Қарши, 1992; Алишер Навоий. Хамса. – Т., 2013; Алишер Навоий. Хамса. – Т., 2019; Yusupova D., O. Davlatov O. Xamsa. Hayrat ul-abror; Xamsa. Sab’ai sayyor; Xamsa. Layli va Majnun; Xamsa. Farhod va Shirin; Xamsa. Saddi Iskandariy. –T., 2021; Эргашев Қ. Насри Хамсайи беназир. Ўз АС, 2009, 18-декабрь.*

Q.E., O.T.

NASRIY RITM – nasriy asar matni u-n xos bo‘lgan, uning badiiy, kompozitsion yaxlitligini ta’minlashga xizmat qiluvchi element. U ko‘p hollarda mazmunan va shaklan o‘xshash, bir-biriga mutanosib nutq birliklarining muntazam, bir me’yorda takrorlanishida namoyon bo‘ladi. N.R. badiiy asar mazmuni b-n chambarchas bog‘liq va asarning mazmuni va g‘oyasini ifodalash vositalaridan biri hisoblanadi. Ritmning yana bir jihati asar va yozuvchi uslubining o‘ziga xosligini ta’minlashda muhim rol o‘ynashidir. Ritm, shuningdek, intonatsiya b-n ham bog‘liq. Voqealar kesimi o‘z aksini topgan matn parchalarining birin-ketin kelishi, mavzu va motivlarning, shuningdek, vaziyatlarning takrori, kontrasti, turli kompozitsion-nutqiy birliklarning mutanosibligi kabilar ham N.R.ga xos xususiyatlar bo‘lib, asarning yaxlitligini, uning uslubiy o‘ziga xosligini ta’minlashga xizmat qiladi.

N. nasrida ham N.R. asarlarning badiiy mazmunini har tomonlama to‘liq ifodalanishini ta’minlovchi omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Adib nasriy asarlarining yuksak badiiyati, ta’sir kuchi, o‘quvchini hayratga soluvchi go‘zalligida ularning ritmi ham muhim ahamiyat kasb etadi. N.ning har bir asarida N.R.ning o‘ziga xosligi ko‘zga tashlanadi va bu hol, eng avvalo, asar mazmuni, yozuvchining badiiy niyati b-n bog‘liq. M-n, “M.Q.”da N. turli ijtimoiy tabaqalar haqida so‘z yuritadi, jamiyatdagi illatlarni fosh qiladi va shu maqsadga mos ritmni topadi. Jumladan, quyidagi misollarda uning o‘z fikrlarini to‘la va chuqur ifoda etish u-n shaklan va mazmunan mutanosib nutq birliklarining ketma-ket kelishi va kontrast vositasida yuzaga keltirilgan N.R.dan foydalanganini ko‘rish mumkin: “Odil podshoh ko‘zgu va bu aning uchasidur. Ul yoruq subh, bu aning qorong‘u kechasidur. Zulm aning ko‘nglig‘a marg‘ub va fisq aning xotirig‘a mahbub. Mulk buzug‘lig‘idin zamirig‘a jam’iyat va ulus parishonlig‘idin xotirig‘a amniyat”. Ma’lumki, N. nasriy asarlari orasida “M.” o‘ziga xosligi va badiiyati b-n ajralib turadi. Unda N. mazmun va shaklning o‘ta yuksak birligiga, garmoniyasiga erishgan va bunda ham N.R.ning o‘zigi xos o‘rni bor. Adibning “V.” hamda “M.” tarkibidagi maktublari va boshqa bir qator asarlarida ham N.R. muhim badiiy funksiyani ado etadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Гиршман М.М. Ритм художественной прозы. – М., 1982; Замятин Е.И. О ритме в прозе. Собрание сочинений в 5 т. Т.5. – М., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ . 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

Q.E.

NAFAS – tiriklikni ta’minlovchi N., ya’ni havo; dam, fursat, lahza; murshidi komildan yetadigan fayz, ishq o‘tida yongan qalbning soflashuvi va farah kasb etishi.

Ma’lumki, Alloh taolo elchilari – rasul va nabiylar mo‘jiza sohibi bo‘lishgan. Hazrati Iso (a.s.)ning mo‘jizasi N.ida bo‘lib, u o‘likni tiriltirgan. So‘z, ma’ni va tasvirga jon bag‘ishlashga qodir shoirlar Sharqdan Isoyi Masihga o‘xshatilgan. M-n, Navoiy bir qit’asida Hofiz Sheroziy

haqida “Iso nafaslig‘ rindi Sheroz” deganda shuni nazarda tutgan.

Tasavvuf va tasavvuf adabiyotida ham N. ning solik taqdiri va kamolotidagi o‘rniga ham, ahamiyatiga ham alohida e’tibor berilgan. Abu Nasr Sarrojga ko‘ra, haqiqiy oshiqlar N. deganda ishq olovida kuygan ko‘ngilning quvonch va shodlanishini nazarda tutishgan. N. Haq ruhidan bir shabada bo‘lganligi tufayli olovga ham hokimlik qila oladi. Bunga esa “tanaffus” deyilgan. Shuning u-n oshiqning o‘z N.ini muhofaza aylash darajasiga ko‘tarilishi uni vaqtni behuda sarflashdan saqlaydi.

Qushayriyning ta’riflashi bo‘yicha esa, N. g‘ayb olamidan keladigan latif hollarining asosidir. Shunga ko‘ra N. sohibi hol sohibiga ko‘ra ham nozikta’b va pokizadir. Ayrim mutasavviflarning hisoblari bo‘yicha inson bir daqiqada 18 bora, kun davomida 2600 marotaba N. olib chiqarar ekan. Shuncha miqdordagi N.ning tozaligi, ya’ni g‘aflat, hasad, kin, adovat va boshqa tubanliklar xurujidan yiroqligi oshiq, orif va darveshdan alohida hushyorlik, ma’naviy mas’uliyat talab qiladi. Zero, ular:

“Haq yo‘lining rahbari nafasidur komilning,
Din taxtining sarvari nafasidur komilning.
Moyayi zot deyilgan, fayzi najot deyilgan,
Obi hayot deyilgan, nafasidur komilning” –

degan tushuncha va qanoat b-n N. olishgan. Ilmda qayd etilishicha, Xoja Ahrori Valiy, Abdurahmon Jomiy, Navoiy kabi buyuk shaxslar ham mansub bo‘lgan “Naqshbandiylik tariqatining bino etilishi nafasni nazorat qilishga asoslangandir”. Darhaqiqat, xojagon-naqshbandiya tariqatining ta’limoti qudsiya atalmish sakkiz qoidadan birinchisi – “hush dar dam”dir. Hush – aql, dam – nafas. Har N.ni aql-idrok nazoratida saqlash, birinchidan, odamni har turli balo-qazolardan asrasa, ikkinchidan, tafakkur va axloq “maydon”ining xilma-xil bezavol his-tuyg‘ular b-n yanada go‘zallashtiradi. Bu haqiqatni Navoiyning naqshbandiylik shartlari talqin etilgan qit’asidagi:

Damingdin yiroq tutmag‘il hushni,
Ki yuzlanmag‘ay har dam ofat sanga. –

degan chorlash va ogohlantirishdan bir qadar anglasa bo‘ladi.

N.ning sofligi va xolisligi u-n qayg‘ura bilish, xususan, dunyo ishlarida adashmaslik, “g‘aflat uyqusi”ga cho‘mib ketmaslikka katta yordam beradi. Navoiy bu haqda “H.A.” dostonida fikr yuritib, jumladan, bunday deydi:

Har nafasing holidin ogoh bo‘l,
Balki anga hush ila hamroh bo‘l...

G‘aflat agar bo‘lsa bu ishdin, dame
Kim yo‘q aningdek kishiga motame.

Shuning u-n “har nafasning javhari” juda nafisligini bilish va o‘sha N.dagi yaqin do‘st bo‘lmasligiga shubhalanmaydigan darajaga, albatta, yetishish zarur:

Har nafasing javhari erur nafis,
Kim senga ul bir nafas erur anis.

Qalb huzuri va ruh shodliklarini N.ning fayzi, mutlaqo sirli, ilhomlantiruvchi jozibasisiz tasavvur etish mumkin emas. Zero, qanoat, rizo va huzur b-n olingan har N. ham jismoniy, ham ma’naviy salomatlik u-n foydalidir. Chunki sifati, xususiyati oliy N. – muqaddas N.:

Bas muni anfosi muqaddas degil,
Balki muqaddas dema, aqdas degil.

Muqaddas N.ga ibrat faqat Hazrati Iso emas, balki shoirning ma’shuqasi hamdir:

Ey Masihim, men qatili ishqmen, turguz meni,
Bir nafas, dedim qabul etkim, nafasning joni bor.

Navoiyning N. bahsidagi fikrlari, albatta, alohida ahamiyat kasb etadi. Biroq ularning odamlarni komil inson mavzusidagi umumiy va tax-

miniy fikr-mulohazalardan qutqazishga yordam berishi ham muhimdir.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Абдулкарим Қушайрий. Рисолаи Қушайрий. – Истанбул., 1991; Ҳужвирий. Кашф ул-маҳжуб. – Истанбул., 1991; Иброҳим Ҳаққул. Навоийга қайтиш. – Т., 2007.*

I.H.

“NAFAHOT UL-UNS” (to‘liq nomi: “Nafahot ul-uns min hazarot-il-quds” (“Pok zotlar huzuridan esgan do‘stlik shabbodalari”) – Abdurahmon Jomiyning 1475/76–1478-yy.da N. da’vati b-n yozgan shayx-u avliyolar haqidagi tazkirasi. U tasavvuf ahlining hayoti, faoliyati va asarlari tavsifidan iborat bo‘lib, tuzilish tarziga ko‘ra Farididdin Attorning “Tazkirat ul-avliyo”siga o‘xshaydi. U tasavvuf paydo bo‘lganidan to o‘z zamonigacha bo‘lgan davrda o‘tgan 618 nafar turli tariqat va silsilalar namoyandalari haqida ma’lumot beradi. Asardan Mansur Halloj, Abusaid Abulxayr, Ali Hamadoniy kabi tariqat shayxlari, Nizomiy Ganjaviy, Sa’diy Sheroziy, Farididdin Attor, Jaloliddin Rumiy, Hofiz Sheroziy kabi ko‘plab mutasavvif shoirlarning holat-u maqomotlari haqida ma’lumot olish mumkin. Jomiy mazkur asarini yozishda 52 ta forsiy, 32 ta arabiy manbadan, jumladan, Abdurahmon Sulamiyning “Tabaqot us-so‘fiya”, Abulqosim Qushayriyning “Risolat ul-qushayriya”, Hujviriyning “Kashf ul-mahjub”, Farididdin Attorning “Tazkirat ul-avliyo” kabi asarlaridan foydalangan. So‘zboshida tasavvufiy istilohlarni – atamalarni keng sharhlaydi. Oradan 20 yil o‘tib, N. “N.U.”ni o‘zbek tiliga qisqartirish va to‘ldirishlar b-n erkin tarjima qiladi. Jumladan, 60 ta tarjimayi holni qisqartirib, 214 ta shayx haqida yangi ma’lumotlar qo‘shadi. N. o‘z tazkirasiga hind mashoyixlaridan, turkiy mashoyixlardan va o‘z zamondoshlaridan ham bir qator shayxlarni kiritadi. Shu tariqa asliyatdagi 618 ta shayx tarjimada 770 taga etadi. “N.U.” 1915-y.da Toshkentda Porsev matbaasida toshbosmada bosilgan. Asar nusxalari Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti markazida 857 va 5420 raqamlari ostida saqlanadi.

“N.U.” asariga o‘z davrida shogirdi Abdulg‘afur Loriy va Muhammad Dehdor Sheroziylar sharh yozadilar. N.ning ko‘rsatmasi b-n Nizomiddin Ahmad Pir Shams “N.U.”dagi arabcha matnlarni fors tiliga tarjima qilib, alohida to‘plam holiga keltirgan. “N.U.”ni turk sultoni Fotih buyrug‘iga ko‘ra, Mahmud bin Usmon Ali Lomi’iy 1521-y. usmonli turkchaga o‘girgan. XIX asrda Xivada Feruz topshirig‘i b-n Oxund Rahmonqul qori asarni o‘zbek tiliga tarjima qilgan (1132 bet).

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Абдураҳмон Жомий. Нафаҳот ул-унс мин ҳазарот ул-қудс. – Теҳрон; Маҳмуд бин Усмон Али Ломиъий. Нафаҳот ул-унс мин ҳазарот ул-қудс. – Истанбул, 927 (1521); Мавлоно Нуриддин Абдураҳмон Жомий. Нафаҳот ул-унс мин ҳазарот-ил-қудс. – Душанбе, 2013Ж; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилди 2. – Душанбе, 1989.*

E.O.

NAFISIY SAID (1896–1966, Tehron) – taniqli Eron adabiyotshunosi va adibi. Boshlang‘ich ma’lumotni tug‘ilgan shahrida olib, keyin Shvetsariya va Fransiyada o‘qigan. 1918–1934-yy. da Eronning turli vazirliklarida ishlab, oliy o‘quv yurtlarida dars bergan. 1934-y.da prof. unvonini olib, 1950-yy.gacha Tehron davlat universitetida faoliyat ko‘rsatgan. Fors mumtoz adabiyotini tadqiq etish va nashrga tayyorlash b-n shug‘ullangan. Qiziqish doirasi keng olim bo‘lib, Eronning mumtoz va zamonaviy adabiyoti, Eron va Markaziy Osiy xalqlari tarixi, qardosh xalqlar, rus, Yevropa va umuman, Sharq-u G‘arb adabiyoti bo‘yicha tadqiqotlar olib borib, 800 dan ziyod monografiya, risola va maqolalar yozgan. “Abu Abdullo Ja’far ibn Muhammad Ro‘dakiy

Samarqandiy (3 jildli, 1930–1940), “Sosoniylar davri Eron tamadduni tarixi” (1952), “Zamonaviy Eron nasri durdonalari” (2 jildli, 1950–1953), “Eronning hozirgi siyosiy va ijtimoy tarixi” (1956), “Eron tasavvufi sarchashmalari” (1964), “Erondagi forsiy tildagi nazm va nasr tarixi” (1965) uning mashhur tadqiqotlaridan hisoblanadi. N. badiiy ijod b-n ham shug‘ullanib, Eron hayotidan hikoya qiluvchi va Ibn Sino, Firdavsiy, Abo Muslim, Muqanna, Rumiy kabi buyuk shaxslarga bag‘ishlangan ko‘plab novellalar yozgan. U “Farangis” (1931), “Jannatning yarim yo‘lida” (1951–1958), “Pinhona o‘tlar” (1960) degan 3 ta roman, “Nodirshohning so‘nggi safari” dramasi (1926)ni yaratgan. G‘azal, qasida, qit’a, va ruboiy janrlarida ham an’anaviy usulda she’rlar yozgan. “Bayhaqiy tarixi” (3 jildli, 1940-1953), Xondamirning “Dastur ul-vuzaro” asarlarini nashr ettirgan. “Fors tilining izohli lug‘ati” (5-jild, 1930), “Fransuzcha-forscha lug‘at” (1931–1932) tuzgan.

Ko‘plab xalqaro anjumanlarda dolzarb mavzulardagi ilmiy ma’ruzalari b-n ishtirok etgan. Jumladan, N.ning 1948-y.da o‘tkazilgan 500 yillik yubileyi tantanalarida qatnashgan. “Jannatning yarim yo‘lida” romani A.Habibullayev tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilinib, nashr etilgan (1974).

Ad.: *Саид Нафисий. Жаннатнинг ярим йўлида. – Т., 1974; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилди 2. – Душанбе, 1989; ЎзМЭ, 6-жилд – Т., 2003.*

E.O.

NAFS (ar.) – 1. Jon, ruh, inson tabiati. 2. Zot, har narsaning asli, vujudi. 3. Shaxs, o‘zlik kabi ma’nolarni bildiradi. Navoiy asarlarida N. ham o‘z ma’nosida, ham majoziy-tasavvufiy ma’nolarda qo‘llangan. Shoir N. orqali, asosan, Qur’oni Karimda zikr etilgan “nafsi ammora” (yomonlikka buyuruvchi)ni malomat qiladi, insonlarni Haq yo‘lidan ozdiruvchi, sharmanda-yu sharmisor qiluvchi nafsning zararlaridan ogoh etadi hamda uni isloh qilish choralarini ko‘rsatib o‘tadi.

Qur’oni Karim va hadisi sharifda N. dunyoga muhabbat qo‘yish, mol-mulkka o‘chlik, tamagirlik, ochko‘zlik, kibr-u havo kabi salbiy tushunchalar b-n bog‘liq holda talqin qilinadi. Chunki ularning barchasi nafsning turli ko‘rinishlari, namoyon bo‘lish shakllaridir. Xususan, harislik b-n xazina to‘plagan va oxir-oqibat boyliklari b-n birga yer yutgan Qorun, toj-u taxti va mol-dunyosiga mag‘rur bo‘lib, o‘zini Xudo hisoblagan, natijada Nil daryosiga g‘arq qilingan Fir’avn kabi N. bandalari haqidagi oyatlarga Qur’oni Karimda tez-tez duch kelamiz. Holbuki, Navoiy yozganidek:

Moldin umrungg‘a osoyish agar yetmas, ne sud,
Nuh umrin hosil etsang, ganji Qorun qozg‘anib.

Maz.: Qorunday behaddu hisob mol-dunyoga ega bo‘lib, Nuh payg‘ambarday uzoq umr ko‘rsang-u, lekin bu boylik senga xotirjam hayotni ta’min etolmasa, bundan nima foyda?

Navoiy ayrim baytlarida N.ni shar’iy amallar orqali, riyozatlar b-n isloh qilish lozimligini ham aytib o‘tgan. Shoir “nafs”ga “ruh”ni qarshi qo‘yadi. Haq yo‘lida foniy bo‘lmoqni istagan odam ikkisini bir-biriga aralashtirmasligi kerak, deydi. Chunki, biri “rahmoniy”, biri “shaytoniy”, biri “nur”, yuksaklikda bo‘lsa, unisi “zulmat”, tubanlikdan joy olgan. Ruh Hazrati Muso Kalimulloh ishini qilsa, N. Fir’avndek sarkashlik qiladi, haqiqatni tan olmay, yomonlikka buyuradi. Ruh Habibulloh – Muhammad (s.a.v.) yo‘lidan boradi, u Zotning ishlarini, fe’l-u atvorini bajarishga harakat qilsa, N. Abujahlga xos bo‘lgan qiliqlarni, sarkashliklarni yoyish b-n mashg‘ul bo‘ladi.

Ruhg‘a sheva Kalimulloh ishin qilmoq fosh,
Nafs Fir’avnliq asbobini aylab marbut.

Ruhg‘a da’b Habibullo ishi oyini,
Nafs Bu Jahlliq asbobini aylab mabsut.

Navoiy tasavvufda e’tirof etilgan lavvoma, mulhima, mutmainna, roziyya, komila va marziyya kabi N. turlariga ishoralar qilib o‘tsa-da,

ularning xususiyatlariga alohida to‘xtalmagan, deyarli tilga olmagan. Shoir “L.T.”da shayton vasvasasidan shikoyat qilgan bir qushga Hudhudning javobini keltirib, insonning ko‘zga ko‘rinmas, ammo eng xavfli dushmani bo‘lgan N. va shayton munosabatlarini haqqoniy ko‘rsatib bergan shaytonni malomat qiluvchi odamzod aslida iblisga emas, N.iga quldir, deydi.

Nafs oncha ko‘nglunga solur g‘urur,
Yetkurur oncha zamiringg‘a futur.

Kim oni shayton ko‘rub hayron qolur,
Vodiyi hayratda sargardon qolur.

Qaysi ishdinkim yetar nafsingg‘a kom,
Topar ondin komini shayton mudom.

Nafs hukmi birlakim qilsang har ish,
Irjayur ul komdin shaytong‘a tish.

Demakim, shaytong‘a bo‘lmishmen zalil,
Ul sening nafsingni aylabtur vakil.

Har ne ul qilmoq kerak nafsing qilur,
Har nekim shayton bilur, ul ham bilur.

Navoiy “V.” asarida modomiki, odamlardagi ochko‘zlik, hirs-u havas, tama, zulm, zo‘ravonlik va haromxo‘rlik davom etar ekan, bu jamiyatda xayr va baraka, osoyishtalik bo‘lmasligidan ogoh etgan:

To hirs-u havas xirmani barbod o‘lmas,
To nafs-u havo qasri baraftod o‘lmas.
To zulm-u sitam jonig‘a bedod o‘lmas,
El shod o‘lmas, mamlakat obod o‘lmas.

Tariqatda pir o‘z muridi N.ini isloh qiluvchilardan hisoblanadi. “L.T.”da har zamon turlanib, goh savob, goh gunoh qiladigan, mustahkam taqvoga ega bo‘lmagan muridga Hudhud tilidan shunday javob berilgan:

Tolibi solikka illatlar bo‘lur,
Nafs xaylidin mazallatlar bo‘lur.

Kim anga fe’li zamoyimdur laqab,
Mubtalo bo‘lur anga ahli talab.

Pir har birga qilur nav’i davo,
Kim borib illat topar tolib shifo.

Navoiy qit’alarida N.ni malomat qilgani hamda o‘z N.ini tuzatishga uringani haqida ma’lumotlar bor. U rasmiy hujjatlarga muhrdor sifatida eng yuqoriga muhr bosishi kerak bo‘lsa ham, eng pastga muhr bosib rasmiylashtirgan. Bu voqea qit’ada tarbiyaviy ruh asosida bayon qilingan:

Chun manga lutf etti shah devonda muhr,
Bu edi eldin quyi muhr urmog‘im.

Kim g‘ururi nafsi sarkash man’iga,
Barchadin bo‘lg‘ay quyi o‘lturmog‘im.

Chun shikasti nafs hosil bo‘lmadi,
Mundin o‘ldi muhrni sindurmog‘im.

Navoiy N.ni “kofir” (inkorchi) sifati b-n tilga olar ekan, uning asl tabiati, ichki mohiyati sarkashlik va chirkinlik asosiga qurilganiga ishora qilgan. N. ruh tabiatiga xilof tarzda Haqni, haqiqatni, yaxshilikni, poklikni va hokazolarni inkor qiladi. Uning kofirtabiatligi shundan.

Navoiy umrin o‘tkardi mashaqqat birla olamda,
Umidi buki, ul olamda topqay komronlig‘lar.

Agarchi kofiri muflis masallik topmadi kome
Va lekin nafsi chun kofir edi, qildi yomonlig‘lar.

Gar ul olamda Haq fazl etmasa-yu adl ila so‘rsa,
Anga bas bo‘ldi zoyi’ muncha chekkan
notavonlig‘lar.

Shayx Najmiddin Kubro ham bir risolasida N.ni “kofir” deb sifatlagan: “Mashoyixlar aytganlarki, agar bir yuz yigirma to‘rt ming payg‘ambarni kofir nafsingga shafi’ keltirsang ham, u

aslo musulmonlikni qabul qilmaydi. Qachonki nafsga aziyat beradigan ochlik, yalang‘ochlik, riyozat, xoksorlik kabilarni qo‘llasang, o‘shanda musulmon bo‘ladi”. Risolaning boshqa bir o‘rnida aytganki: “... murid odoblaridan biri mujohadadir, ya’ni shayton, dunyo va nafs-u havo kabi botiniy dushmanlar bilan kurashmog‘dir. Bu dushmanlarni ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmasligi bois, ularning makridan amin bo‘lmaslik kerak. Chunki zohiriy dushmaning bo‘lgan kofir bilan jang qilish osonroq kechadi. Uni ko‘rib, jang qilasan. Botiniy dushmanlar xavfliroq bo‘lgani u-n ham Payg‘ambar (s.a.v.): “Biz kichik jihoddan qaytib endi katta jihod, ya’ni nafsimiz bilan kurashamiz”, – dedilar. Navoiy “H.A.”ning xotima qismida lirik chekinish qilib, insonlar b-n munosabati, ijod jarayoni, ishq va she’rlar yozish haqidagi xohishlaridan bahs yuritadi. Sayyid Hasan Ardasherdek ko‘ngli yuksak maqomlarni orzu qilgani, ammo N.i mone bo‘lganidan so‘zlaydi. “Lekin nafsga esa (bu dunyo) lazzatlari orzu bo‘ldi. Himmat shodlik yeri – jannatga qarab uchib, ketdi; nafs esa meni jahannam chohiga sudradi. Nafsning yuzi malaknikiga o‘xshasa ham, o‘zi yashirin. Unda dev bilan shayton ikkalasi birlashib, juft bo‘lgan... Xudo haqqi, ey ko‘ngul, insof qil; dindan faqat nafsgina chiqarishi mumkin. Bu nafsning qo‘lida men afgorman, shuncha balolarga giriftorman...”

Navoiy N.ning nayranglari, qutqulari va yomon oqibatlaridan ogohlantirar ekan, insonni N.ini tanishga, saodatli bo‘lishga undaydi.

U “M.Q.” asarida shahvatiga qul bo‘lganlarni “Shahvatparast – nafsg‘a zerdast”, deb mazammat qiladi. Ulug‘ mutafakkir shoir g‘azallaridan birida bu o‘tkinchi dunyoni rabotga, N.ni esa yo‘lto‘sar qaroqchilarga o‘xshatadi. Shunday qaroqchiki, egasini ayamaydi, javharidagi barcha yaxshiliklardan mosivo qiladi. Shuning u-n ham dinini muhofaza qilmoqchi kishi undan ehtiyot bo‘lishi kerak, deydi.

Nafs qutto’-ut-tariqi manzilidur bu rabot,
Naqdi din hifzig‘a qil o‘tkuncha andin ehtiyot.

Navoiyga ko‘ra, haqiqiy qahramonlik o‘z “nafs itini” yengish, uni “zabun” qilib, jilovlab olishdir. O‘rmondagi sherni zabun qilish, undan g‘olib chiqish esa shijoat, botirlikning alomati emas.

Besha sherin gar zabun qilsang shijoatdin emas,
Nafs itin qilsang zabun olamda yo‘q sendek shujo’.

Bordi-yu inson N. itligidan xalos bo‘lib, N. qutqularidan qutulsa, unga Alloh o‘z karomatlarini ehson aylaydi. Natijada, avliyo Majnun kabi dala-dashtlardagi vahshiy hayvonlarni ham o‘ziga rom etadi. Nega Majnun kabi? Chunki Majnun o‘z nafsini yenggan, qalbi pok, beg‘araz oshiq edi. Shoir ta’riflaganidek: “Oshiq ani bilkim erur dardnok, Ham tili, ham ko‘zi-yu ham ko‘ngli pok”. Shu bois ham Majnunning poklangan qalbi, isloh bo‘lgan N.i, ilohiy jazbasidan vahshiy hayvonlar uning ulfati, yonida parvona bo‘lardilar.

Har kishi nafs itligidin aylasa o‘zni xalos,
Vahsh xaylin aylar ul dasht uzra Majnunvor sayd.

Navoiy g‘azallarida N.ni shar’iy amallar orqali, riyozatlar b-n isloh qilish lozimligini aytib o‘tgan. Shuningdek, shayxlar haqidagi “N.M.” tazkirasida ham avliyolarning N. b-n bog‘liq hikmatli so‘zlarini keltirib o‘tadi. Jumladan, Shayx Horis bin Asad Muhosibiy: “Kimki nafsini riyozat bila poklamasa, unga maqomot odoblarining yo‘li ochilmaydi”, – desa, Shayx Sariy bin Mug‘allis Saqatiy: “Ma’rifatning ibtidosi – yolg‘iz Haq bilan bo‘lish u-n nafsni poklashdir”, – deydi. Shoh Shujo’ Kirmoniy hazratlari: “Kimki nafsini shahvatdan, ko‘zini haromlarga boqishdan saqlasa, botinini doimiy muroqaba b-n ta’mir qilsa va zohirini sunnat b-n bezasa, uning farosati xato qilmaydi”, degan hikmatli gapni aytgan. Avliyolardan Samnun bin Hamza Muhibb Kazzob N.ga qul bo‘lishning oqibatidan ogohlantirib shunday deydi: “Bandaning Haq taologa bog‘lanishining avvali – o‘zdan kechish, Haq taolodan ayri tushishning av-

vali esa, o‘z nafsiga bog‘lanishdir”. Shayx Ja’far bin Muhammad bin Nusayr Xuldiy Xavvos hazratlari N.ni xor tutmoqlikni javonmardlik shartlaridan hisoblab aytadilarki: “Javonmardlik o‘z nafsini xor, musulmonlar hurmatini uluq bilmakdir”. Chunki o‘zini yaxshi ko‘rgan, xudbin kimsadan hech qachon yaxshilik chiqmaydi. Bunday odam atrofidagi muhtoj kishilarga, musulmonlarga yordam berishdan or qiladi. Abu Amr Nujayd hazratlarining aytganlaridek: “Kimga nafsi aziz tuyulsa, dini xor ko‘rinadi”.

Navoiy asarlarida “Man arafa nafsahu faqad arafa Rabbah” – kimki o‘z N.ini tanisa, Rabbisini tanibdi, hadisini bir necha baytlarda sharhlagan va “nafs zulmati”dan yorug‘likka chiqish u-n Yaratuvchiga iltijolar qilgan.

Nafs xor etmish Navoiyni, aziz et faqr birla,
Ey jalol-u rahmatingdin gar zalil-u gar muazzaz.

Navoiy talqinicha, N. insonni xor etadi, tasavvuf yo‘lidagi faqrlik esa aziz. Lekin solik u-n faqr yo‘lida bir murabbiy murshid lozim. Murshid qachonki, foniy bo‘lgan muridining jism tuprog‘ini bosib o‘tib, kovushlarini chang-u g‘ubor qilsa, murid maqsadiga yetadi.

Balodur nafs shirki faqr yo‘lida, xush ul foniy,
Ki bir rahravg‘a jismi tufrog‘in gardi
shirok etmish.

Navoiy asarlarida, asosan, inson tabiatidagi yomonlikka buyuruvchi nafsdan bahs etsa-da, asarlarining u yoki bu o‘rinlarida “lavvoma”, “mulhama”, “mutmainna”, “roziya”, “marziya”, “zakiyya” (safiyya) kabi sifatlarga sohib bo‘lgan N. haqida ham mulohazalar yuritadi. Navoiy N. badkirdor, N. nishotiy, N. komil, N. daniy kabi iboralar orqali ham N.ga munosabat bildiradi va N.ning turli qirralariga xos bo‘lgan xususiyatlardan so‘z yuritadi. U N.ni isloh qilish va komil inson bo‘lish yo‘llari va muammolarini eng teran tadqiq va tahlil qilgan mutafakkir shoirdir. Navoiyning bu yo‘ldagi o‘git va nasihatlari hamisha insoniyatni haq va to‘g‘ri yo‘lga boshlaydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Вақфия. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Саййид Жаъфар Сажжодий. Фарҳанги истилоҳот ва таъбироти ирфоний. – Теҳрон. 1370 (ҳ.-ш.); Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005; Иброҳим Ҳаққул. Шахсият ва шеърият. – Т., 2014; Аждодларимиз маънавий меросидан. – Т., 2014; Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Али Ҳаким ат-Термизий. Манозил ул-ибод мин ал-ибода. – Т., 2003; Муҳаммад Саййид Тантовий. Пайғамбарлар тарихи. – Т., 2021.*

S.R., E.O.

NAXSHAB – Q.: Qarshi.

NA’T (ar.) – madh, vasf, ta’rif-tavsif, maqtov. Ezgu va go‘zal xislatlar, sifatlar, xulqlar, ishlar ta’rifi. N. so‘zi umuman madh ma’nosida bo‘lsa ham, Sharq adabiyotida u, asosan, Muhammad (s.a.v.) vasfiga qaratilgan. Aksar o‘tmish shoir-u adiblari masnaviy, doston, devonlar, ilmiy-tarixiy asarlar muqaddimasida hamd va munojotdan keyin N. keltirganlar. Bu bora-bora an’ana ko‘rinishini olib, N. Sharq adabiyotidagi badiiy asar unsurlaridan biriga aylangan. Badiiy adabiyotda Hamd va N. “odobi tasnif” N. mazmun-mundarijasini, asosan, payg‘ambar va as’hoblari ta’rifi tashkil etadi. N. turli she’riy janrlarda (qasida, g‘azal, qit’a, ruboiy, masnaviy) yozilgan. M-n, “X.M.” devonlar turkumidan 40 ga yaqin N. g‘azal o‘rin olgan. Ular tarkibida N. ruboiylar va qit’alar ham mavjud. Mustaqil N.lar ham yaratilgan. Abdulloh Ansoriy, Farididdin Attor, Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiylarning ba’zi qasidalari N. ekanligidan kelib chiqib, ba’zi adabiyotshunoslar N.ni qasida navlaridan biri hisoblaydilar.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик, 2-жилд. – Т., 1983; Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 2. – Душанбе, 1988; Ғаффорова З. Навоийнинг ҳамд ва наът ғазаллари. – Т., 2001; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. 2-жилд. – Душанбе, 1989.*

E.O.

NAQD – 1. Naqd pul, mavjudlik. Pul shaklida (Navoiy davrida oltin, kumush, mis tangalarda) o‘sha paytning o‘zida (nasiya emas) tayyor, mavjud bo‘lgan mablag‘. N. ulug‘ shoir asarlarida takror-takror qo‘llanilgan. Jumladan, “V.”-da N. mudarris, mutavalli, imom, hofiz, mushrif va boshqalarning maoshlarini qayd etganda, bu atamadan foydalangan: “Arbobi vazoif – ikki olimi muttaqiy mudarris bo‘lg‘ay: har birining yilliq vazifasi ming ikki yuz oltun naqda, yigirma to‘rt yuk oshlig‘kim, sulsi arpa, sulsoni bug‘doy bo‘lg‘ay...

Olti xushxon hofizdin musaddirg‘a yilliq naqda besh yuz oltun, munosafa oshlig‘ o‘n besh yuk... Imomg‘a, masjidi jome’da xatib bo‘lib, maktab dag‘i tutg‘ay, yillik naqda ikki yuz oltun...”

2. Ko‘chma ma’noda boylik, xazina.

Kirma savdo bahrig‘a olamdin istab sudkim,
Siym naqdi tushsa lekin umr naqdi siyg‘olur.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Вақфия. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий асарлари учун қисқача луғат. (Тузувчи Ҳасанов Б.) – Т., 1993.*

Q.E.

“NAQD UN-NUSUS” (“Saylanma ma’lumotlar”), (to‘liq nomi: “Naqd un-nusus fi sharhi Naqsh al-fusus” (“Hikmatlar sarasi” sharhida “Saylanma ma’lumotlar”) – Abdurahmon Jomiyning Muhyiddin ibn Arabiy qalamiga mansub “Naqsh al-fusus” nomli falsafiy-irfoniy asariga bitilgan sharhi (1459). Unda “Naqsh al-fusus”da bayon etilgan eng muhim masalalarni Ibn Arabiy maktabining zabardast namoyandalari bo‘lgan Sadriddin Ko‘nyoyaviy, Muayyaiddin Jandiy, Sa’diddin Farg‘oniy, Majdiddin Sanoiy, Avhaddin Kirmoniy, Abdurazzoq Koshiy kabi tasavvuf olimlari qarashlari asosida, ularga tayangan holda sharhlaydi. U dastlab asar muqaddimasida muallif keltirgan irfoniy istilohlarni keng izohlab, keyin asosiy mavzu – vahdat ul-vujud ta’limotini sharhlashga o‘tadi. Har bir masala sharhi oxirida mashoyixlarning fikrlari b-n birga o‘zining ham falsafiy-tasavvufiy mazmundagi baytlarini keltiradi. Mavzu va maqsadga muvofiq ravishda ularning mohiyatini ochish va fikrlarining tasdig‘i sifatida hikoyat va rivoyatlarga ham murojaat qiladi. Ba’zi masalalarni kengroq va chuqurroq tushuntirish u-n savol-javob usulidan ham foydalanadi. Bu N. yodga olgan asarlar jumlasidan bo‘lib, “Xam.M.”ning 3-maqolatida “Kutub va rasoil bobidakim, alarning musannafotidur va mazkur bo‘lg‘on musannafotning te’-dodi budurkim”, – deb, Abdurahmon Jomiyning kitob va risolalari ro‘yxatida sanab ko‘rsatadi. Shundan keyin ustozining o‘zi “tasnifig‘a sabab va ta’lifiga bois bo‘l”gan asarlari xususida fikr yuritar ekan, Faxriddin Iroqiyning tasavvufga oid “Lamaot” asarini uning huzurida o‘qigani, lekin bu asarni tushunish mushkulligidan o‘zining iltimosiga ko‘ra u “Ashi’at ul-lamaot” nomli sharh bitgani haqida ma’lumot beradi:

“Va ul sharhni bitirda “Fusus” va “Futuhot” va “Nusus” va “Fukuk” va aksar qavmning umda kutubi muborak nazarlarida erdi, agarchi hech qaysig‘a boqg‘ali ehtiyojlari yo‘q erdi. To ulkim, bu sharh bila “Lamaot”ni alar qoshida faqir tugattim, birovki ul kitobni o‘qusa, faqir bu varaqda bitilgan so‘zlardin nishonlig‘ so‘zlar topar va mundoq davlatg‘a abnoyi zamondin oz kishi, balki hech kishi musharraf bo‘lmaydir”.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамсат ул-мутаҳаййирин. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд.*

– T., 2011; Ғаниева С. Навоий ёдга олган асарлар. – T., 2004; Холмўминов Ж. Жомий ва ваҳдат ул-вужуд таълимоти. – T., 2008.

E.O.

NAQUMOHIS (Nikomax, er.av. 367-y.da v.e.) – Makedoniya qiroli Aminta III saroyida xizmat qilgan qadimgi yunonistonlik hakim, Arastu (Aristotel)ning otasi. Iskandarning otasi Faylaqusning olim va donishmand vaziri bo‘lgan. Navoiy “S.I.” dostonida N.ni shunday tasvirlagan:

Naqumohis ollinda dastur edi
Ki, hikmatqa olamda mashhur edi.

Sipehr avjig‘a fikri sur’atnamoy,
Falak sayridan royi mushkilkushoy.

Navoiy dostonda yozishicha, Iskandarni faqat ko‘ngliga joylab qolmay, joni orasida asrab, o‘stirayotgan Faylaqus o‘g‘lining tili chiqib, nutqi ravonlashgach, ta’lim berish vaqti yetganini anglaydi va ilm-u hikmatda olamga mashhur N.ga muallimlik qilish vazifasini yuklaydi. N. osmon yuksakligi haqida fikr yuritadigan, falakiyot ilmi sirlarini puxta bilgan alloma bo‘lib, o‘zining o‘tkir zehni b-n har narsaning mohiyatini tez tushunib oladigan zot edi. Ilmda unga teng keladigan kimsa yo‘q bo‘lib, tadbirkorlik b-n ofatlarni daf etadigan bu hakimning aql-idrokidan shoh faxrlanar edi. N. Iskandarni shogirdlikka qabul qilishni o‘ziga sharaf deb biladi, chunki u Iskandar tug‘ilgan kundan voqif bo‘lib, o‘sha kechadagi osmonning butun holatini, yulduzlarning baxt va ofat maqomini ko‘zdan kechirgan, go‘dakning qadami pokiza va qutlug‘, baxt-saodatli va sof vijdonli shoh bo‘lishi haqida hukm chiqarilgan edi. Asarda N. shunga ko‘ra Iskandarga ustozlik qilgani va uni ilm-u ma’rifatda barkamol etib tarbiyalagani xususida gapirishgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – T., 2011.*

S.O‘

NAQSHBANDIYLIK VA NAVOIY – Naqshbandiya – Bahouddin Naqshband Buxoriy (1318–1389) tomonidan rivojlantirilib, eng yuksak cho‘qqiga ko‘tarilgan sunniylikning barcha qarashlarini o‘zida jamlagan, diniy tamoyillarga mo‘tadil amal qilishni, go‘zal axloqni, mehr-muhabbatni, xayr-u saxovatni targ‘ib qiladigan dunyoga mashhur tariqatdir. Sunnatga bog‘langan, xojagon va yassaviylik g‘oyalariga asoslangan, bu tariqatni Bahouddin Naqshband takomillashtirgan. Tariqat to‘rt tamoyil asosiga qurilgan: shariat b-n zohirni poklash, tariqat b-n botinni poklash, haqiqat b-n qurbi ilohiyga erishmoq, ma’rifat b-n Allohga erishmoq. Bahouddin Naqshband “Az-zohir lil-xalq al-botin lil Haq”, ya’ni zohirda xalq, botinda Haq b-n bo‘lib, tasavvufiy hayot kechirishga chaqirgan. Amallarni bajarish barobarida mehnatni tark etmaslikni, halol kasb b-n shug‘ullanib, halol luqma yeyishni doim targ‘ib qilgan. Xojagon-naqshbandiylik tariqatining mashhur o‘n bir rashha (qoida va talab)lari quyidagilardir: hush dar dam, nazar bar qadam, safar dar vatan, xilvat dar anjuman, yodkard, boz gasht, nigohdosht, yoddosht, vuqufi zamoniy, vuqufi adadiy, vuqufi qalbiy. Mazkur rashhalarning dastlabki 4 tasi Yusuf Hamadoniy tomonidan, keyingi 4 tasi Abduxoliq G‘ijduvoniy tomonidan va oxirgi 3 tasi esa Bahouddin Naqshband tarafidan ishlab chiqilgan va tariqatga kiritilgan. Naqshbandiya hazrat Payg‘ambarimizdan (s.a.v.) uning 1-xalifasi Abubakr Siddiq (r.a.) va boshqa shayxlar vositasida Bahouddin Naqshbandga yetib kelgan. Ammo keyingi asrlarda tariqat Bahouddin Naqshband nomi b-n ataldi va mashhur bo‘ldi. Buning 2 ta sababi bor. Birinchisi, Bahouddin Naqshband tariqatni taraqqiy ettirib, mukammal bir tizimga solgan. Ikkinchisi, tariqatda eng yuksak maqomlarni egallagan. N. “N.M.”da keyingi ikki yuz yilda ham Bahouddin Naqshbanddan ulug‘roq shayx chiqmagani haqida Mavlono Jaloliddin Xolidiyning so‘zini keltiradi. Shuning u-n ham bu tariqat o‘zining mo‘tadilligi va komil inson yetishtirish borasidagi afzalligi

b-n asrlardan beri qanchadan qancha iste'dodli olim va fozillarni tarbiyalab voyaga yetkazgan. Jumladan, Xoja Ahrori Valiy, Abdurahmon Jomiy, N., Maxdumi A'zam Kosoniy-Dahbediy, Boborahim Mashrab, So'fi Ollohyor, Majzubi Namangoniy va h.k.

N. butun umri davomida naqshbandiyaning targ'ibotchisi sifatida amaliy va nazariy faoliyat olib boradi. Uning bevosita tarbiyasi va marhamatlaridan bahramand bo'lgan tarixchi Xondamir "Makorim ul-axloq" kitobida N.ning ko'plab masjid, madrasa qurgani, shayx-darveshlarni izzat-ikrom qilgani va shoirning yoshlik paytidanoq darveshvash va tasavvufga moyil bo'lgani haqida ma'lumot beradi. N. har doim, hatto ishi ko'p bo'lgan mansabdorlik paytlarida ham tasavvuf yo'lidan susaymagan. Xondamirning xabar berishicha, Sulton Husayn Boyqaro 892 (1487) hijriy yilda Mozandaron viloyatini boshqarishni qat'iy taklif b-n unga topshiradi. N. ikki yarim yildan keyin hukumat ishlaridan etak yig'ishtirib, Hirotga qaytadi. Shoir mana shunday lavozimlarda ishlagan paytlarida ham "hech qachon ahli dillar harakatiga payravlik qilishdan bir soat ham g'ofil emasdi". Har doim ilm va irfon ahllariga ixlos va e'tiqod qadami b-n xizmat qilardi. Xususan, oliyjanob Maxdumiyga (Jomiyga) yaqin mulozamatda bo'lib, u kishi huzurida darvesh va so'filarning kitoblarini o'qish b-n shug'ullanardi. Xondamir "Ul hazrat tomonidan ham, mashoyix va so'fiya zikrida va sayr-suluk yo'llari bayonida asarlar yuzaga kelgan"ini aytib, "N.M." va "L.T." kitoblarini zikr qiladi. Shuningdek, "fuqaro va darveshlarning farovonligi, g'arib va musofirlarning farog'ati u-n Xuroson atroflarida ko'p miqdorda xonaqoh, rabot, hovuz va hammomlar qurgan"ligini ta'kidlab, ularning nomlarini keltirib o'tadi. N. tasavvufni komillik yo'li sifatida e'tirof etgani u-n ham tasavvuf g'oyalari goh oshkora, goh yashirin tarzda uning ko'plab asarlari qatidan mustahkam joy olgan. Shoir naqshbandiyani "tariqati oliya", "qanoat tariqi" va "faqr yo'li" kabi nomlar b-n ataydi. U naqshbandiya sulukiga mansub bo'lgan holda boshqa tariqat shayxlariga ham yuksak ehtirom ko'rsatadi. Naqshbandiyaning o'ziga xos afzallik jihatlarini ko'rsatib beradi. N. "N.M." asarida kelgan boshqa tariqat shayxlariga faqat ehtirom ko'rsatish emas, balki, Jomiy asariga kiritilmagan mashoyixlarni ham kiritadi. Bobur "Boburnoma" asarida "Alisherbek qoshida mutasavviflar yig'ilib, vajd va samo' qilurlar erdi", – deydi. Demak, N. xufya zikr tarafdori bo'lgan holda jahriya zikrni ham inkor etmagan va o'zi ham yig'inlarda ishtirok etgan.

N. nazmiy va nasriy asarlarida tasavvuf, xususan, naqshbandiylik va uning shayxlari zikriga alohida to'xtaladi. "X." dostonlarida ham "X.M." devonida ham naqshbandiylik g'oyalarini, odob-u arkonlarini o'rni-o'rnida bayon qilib o'tadi. "X.M."dagi tasavvufiy g'azallarda naqshbandiylikning asos va talablari ham o'rin olgani shubhasizdir. G'azallarda Alloh vaslini istash, uning sifatlari, tajalliy, murshid-murid odoblari va hok. irfoniy masalalar naqshbandiya talablari darajasida o'z ifodasini topganiga guvoh bo'lamiz. N. "B.V."dagi "Naqsh" radifli g'azalida naqsh so'zini turli ma'nolarda qo'llaydi. Shoir g'azal maqta'ida naqshbandiylarning ko'ngilda faqat yorning – Allohning ismini naqsh etish g'oyasiga diqqatni qaratadi:

Bog'lamas naqsh ulki bo'lg'ay sendin
o'zga yor uchun,
Bazmi dard ichra Navoiy bog'lasa
hijronda naqsh.

Shoir ko'ngilda yorning qad va yonoqlari xayolini (tajalliy va tavajjuh)ni naqsh etgani hamda bu bog'ni (ko'ngilni) sarv-u gul niholi (zikr va poklik) b-n bezagani boshqa baytlarida ham ta'kidlab o'tiladi.

Ko'ngulda qaddu uzoring xayolin ettim naqsh,
Bu bog'ni bezadim sarv-u gul niholi bila.

N.ning "L.T."asarida Hudhud maqtanchoq tovuqqa javob berar ekan, Sidra daraxti ostida yashaydigan boshqa bir tovuq haqida gapirib,

uni maqtaydi va naqshbandiya odoblariga rioya qilganiga e’tibor qaratadi.

Keldi xilvatgohi oning anjuman,
Sayr etar lekin yeri doim vatan.

Arsh parvoz o‘ldi-yu sidranishin,
Elga zohir aylamay parvoz ishin.

Ermas ul Simurg‘din ayru dame,
Vaslidin ko‘ngliga o‘zga olame.

Etmayin jonig‘a hajridin gazand,
Surati vaslida har dam naqshband.

N. bunga o‘xshash fikrlarini “S.I.” dostonida ham davom ettiradi. Unda safar qilishning mashaqqatlari haqida gapirar ekan, iloji boricha vatanni tark etmaslik, do‘st-u yorlarni g‘animat bilish va umrni xushvaqt o‘tkazishni maslahat beradi. Lekin safar qilolmagan odam sayr-u sayohatga rag‘batli bo‘lsa, o‘z vatanida safar etishni, anjuman ichida xilvatda bo‘lishni, “safar dar vatan” va “xilvat dar anjuman”ga amal qilib, ruhiy-ma’naviy sayohatga undaydi

Va gar sayrg‘a asru rog‘ib esang,
Safar naf-u zarrig‘a tolib esang–

Musofir bo‘l, ammo vatan ichra bo‘l,
Tila xilvat-u anjuman ichra bo‘l.

“G‘.S.” devonidagi “Qanoat naqshining ifshosi-yu naqshbandiya tariqining adosi” sarlavhali 11 baytli qit’asi shoirning naqshbandiya tariqi haqidagi teran xulosalaridan biridir. Ko‘ngul Haq tajallisining mazhari bo‘lgani u-n shoir unga xitob qilib, qanoat tariqiga kirishini, shunda hurmat-izzatga musharraf bo‘lishini ta’kidlaydi:

Qanoat tariqig‘a kir, ey ko‘ngul,
Ki, xatm o‘lg‘ay oyini izzat sanga.

Keyingi to‘rt baytda shoir naqshbandiya tariqatining solikka in’om etadigan ma’naviy maqom va tuhfalardan bahs yuritadi va oltinchi baytdan boshlab o‘zining asl maqsadini, ya’ni naqshbandiyaning eng muhim odoblaridan “xilvat dar anjuman”ga amal qilishni targ‘ib qiladi:

Desang xilvatim anjuman bo‘lmasun,
Kerak anjuman ichra xilvat sanga.

Agar xilvatim anjuman bo‘lmasin desang, anjumanda xilvat saqlagin. Ya’ni, anjuman ichida ham Alloh b-n birga bo‘l. Keyingi baytda shoir “safar dar vatan” qoidasini eslatadi. Safarning ham o‘ziga yarasha foydalari bor. Biroq safar qilishda mehnat-mashaqqat bo‘ladigan bo‘lsa, vatan ichida ham safar qilib, ma’naviy sayr qilish kerak:

Vatan ichra sokin bo‘lub soyir o‘l,
Safardin agar bo‘lsa mehnat sanga.

Keyingi baytda “nazar bar qadam” shioriga amal qilishga undaydi:

Nazarni qadamdin yiroq solmag‘il,
Bu yo‘l azmi gar bo‘lsa rag‘bat sanga.

Solik agar naqshbandiya yo‘lida yurishni qasd qilib, rag‘bat ko‘rsatsa, har bir qadamini bilib bosishi, undan nazarini uzmasligi, g‘aflatda qolmasligi kerak. Navbatdagi baytda shoir “hush dar dam” qoidasini sharhlaydi:

Damingdin yiroq tutmag‘il hushni
Ki, yuzlanmagay har dam ofat sanga.

Agar solik bir lahza g‘aflatda qolsa, unga ofatlar yuzlanishi mumkin. Shu bois “hush dardam”, ya’ni har bir nafas olish va chiqarishda hushyor va ogoh bo‘lish, g‘aflatda qolmaslik lozim.

N. yuqoridagi to‘rt baytda naqshbandiyaning eng muhim qoidalaridan bahs yuritgan va ularga befarq bo‘lmaslikni ta’kidlab o‘tgan. Aslida bu to‘rt qoidani Yusuf Hamadoniy naqshbandiyaga joriy qilgan.

N. ko‘ngliga xitob qilib, bu to‘rt ish b-n rub’i maskun ya’ni yer yuzining to‘rtdan biriga shoh

bo‘lsang, senga qutlov nog‘oralari chalinsa, ajab emas, deydi.

Bu to‘rt ish bila rub’i maskun aro,
Chalinmoq ne tong ko‘si davlat sanga.

Qit’aning oxirgi baytida N. naqshband bo‘lish shartini to‘rt ish, ya’ni to‘rt qoidani bajarishga bog‘laydi. Va aytadiki: “Ey Navoiy, agar senga navbat yetsa, bu ohang ila (to‘rt ish vositasida chalingan davlat nog‘orasining ohangi b-n) naqshband bo‘lasan”.

Bu ohang ila bo‘lg‘asen naqshband,
Navoiy, agar yetsa navbat sanga.

Naqshbandiylar oyat va hadislarning botiniy ma’nolariga ham diqqatni qaratganlar. N. “B.V.” devonidagi bir qit’asida “Al kosib-u habibulloh” (“Kosiblar Allohning do‘stlaridir”) hadisini keltiradi va “piri komil” hazrat Naqshbandning talqiniga ko‘ra, bu hadis ma’nosi “Haq sari” undashi b-n e’tiborlidir. Shu bois “kasb” dan maqsad bu dunyo ishi emas, balki, fano – Haq yo‘liga foniy bo‘lishdir.

Nukta asnosida Habibulloh
Dedi:“Alkosibu habibulloh”.

Ma’ni aytur bu so‘zga piri komil,
Ki so‘zi erdi Haq sari shomil.

G‘araz ermas bu kasbdin dunyo,
Bal erur kasbdin murod fano.

N. qarashlarida naqshbandiylik halol mehnat, pok e’tiqod, solih amal va ruhiy kamolot timsoli. Shuning u-n ham shoir murshidning komil va muridning suluk yo‘lida astoydil bo‘lishini, bu sulukni o‘ziga shior qilmagan odam, riyokorlik va soxta zohidlik b-n turlanmasligi kerakligini ta’kidlagan:

Shior aylamasang naqshband oyinini,
Riyo-yu zuhd bila bo‘lma naqshbin bore.

N. hayoti va ijodida naqshbandiya tariqati ta’limotining tamoyillari, yo‘riqlari, odob-u arkonlari yetarlicha o‘z ifodasini topgan. Ularni yaxshi bilmasdan turib, shoirning tasavvufiy maslak va qarashlarini teran anglab bo‘lmaydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ўзбек адабиёти тарихи. 5 жилдлик, 2-жилд. – Т., 1977; Ислом. Энциклопедия. – Т., 2004; Хондамр. Макоримул-ахлоқ. – Т., 2015; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 1960; Хожа Юсуф Ҳамадоний. Ҳаёт мезони. – Т., 2003; Хожа Абдулхолиқ Ғиждувоний. Мақомоти Юсуф Ҳамадоний. – Т., 2003; Баҳоуддин Балогардон. – Т., 1993; Қаюмов А. Бу оҳанг ила бўлғасен нақшбанд. – Т., 1993; Ҳаққул И. Хожа Ориф Моҳитобон. – Т., 1996; Исҳоқов Ё. Нақшбандия таълимоти ва ўзбек адабиёти. – Т., 2002; Султонмурод О. Нақшбанд ва Навоий. – Т., 1996; Валихўжаев Б. Хожа Аҳрор тарихи. – Т., 1994; Рустамий А. Ҳазрати Навоийнинг эътиқоди. – Т., 2010; Султон И. Баҳовуддин Нақшбанд абадияти. – Т., 1994; Сайфуллоҳ С. Буюклар ҳалқаси. – Т., 2011.*

S.R.

NAQQOD (ar.) – toza qiluvchi, sof qiluvchi. Aslni noasldan ajratuvchi, sarakni sarakka, puchakni puchakka ayiruvchi. O‘tmishda asl tangani soxtasidan ajratuvchi kishilarni N. deganlar. Keyinchalik majoziy ma’noda sinchi, yaxshini yomondan, chinni yolg‘ondan, aslni soxtadan ajratuvchi kishilarga nisbatan ham ishlatilgan. Badiiy adabiyotda so‘z ustasi, tanqidchi, san’at durdonalarini sayoz asarlardan farqlovchi qalam ahli ko‘zda tutiladi. “S.I.” dostonining yakunlovchi bobida Navoiy “X.” asoschisi, o‘zining she’riyatdagi ustozlaridan biri bo‘lmish Nizomiy Ganjaviyni nazm ahlining ustodi, so‘z sarrofi sifatida ta’riflaydi:

Nizomiyki nazm ahli ustodidur,
Aning tab’i so‘z – jinsi naqqodidur.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Ғиёс ул-луғот. Жилд 2. – Душанбе, 1989; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик, 2-жилд. – Т., 1984; Фарҳанги забони тожик. Жилд 1. – М., 1969.*

E.O.

NAG‘IYEVA Jannat Mir Mustafo qizi – (Ozarbayjon, Salyon shahri) taniqli ozarbayjon adabiyotshunos olimasi, f.f. d-ri (1986). Ozarbayjon Davlat universitetining Sharq fakultetini bitirgach, 1950-y.dan Ozarbayjon Fanlar akademiyasining Qo‘lyozmalar fondi (hozirgi Qo‘lyozmalar instituti)da avval ilmiy xodim, 1978-y. dan qo‘lyozmalarni ilmiy tavsiflash, bibliografiyasini tuzish va kataloglashtirish bo‘limining mudiri vazifasida ishlagan.

N.J.M.M.Q.ning ilmiy faoliyati ko‘proq Ozarbayjon, o‘zbek, fors-tojik adabiyotlariga doir yozma yodgorliklarni o‘rganish, ularning tavsifini berish, adabiy aloqalarni tadqiq etish masalalari b-n bog‘liqdir. Bu sohada olim yuzdan ortiq maqola va ilmiy tadqiqotlar yaratgan.

N.J.M.M.Q. ilmiy tadqiqotlarining katta qismi N. adabiy merosi, uning asarlarining Ozarbayjonda tarqalishi, xususan, Boku qo‘lyozmalari fondida mavjud nusxalarini aniqlash, o‘rganish va ularni ilmiy muomalaga olib kirish b-n aloqadordir.

Olimaning “Navoiy asarlarining Ozarbayjonda tarqalishiga doir”, “Navoiy ijodining Ozarbayjonda o‘rganilishi”, “Navoiy va Fuzuliy devonlari birgalikda”, “Navoiy va Ozarbayjon mualliflari”, “Navoiy asarlari Ozarbayjon kolleksionerlari kitobxonlarida”, “Navoiy “Xamsa”si va ayrim-ayrim dostonlari qo‘lyozmalari”, “Kishvariy va Alisher Navoiy”, “Nizomiy san’atining ulug‘ tarannumchisi”, “Navoiy va XIX asr Ozarbayjon adabiyoti” kabi maqolalari ko‘p yillik ilmiy izlanishlarining muvaffaqiyatli natijalaridir.

N.J.M.M.Q.ning “Alisher Navoiyning Boku qo‘lyozmalari” monografiyasi esa (1986) Ozarbayjondagi N. asarlari qo‘lyozmalarini o‘rganish yuzasidan olib borgan ko‘p yillik ilmiy ishlariga ma’lum darajada yakun yasadi. Ushbu monografiya va maqolalar b-n olima N.ning Ozarbayjon adabiyoti, madaniyati taraqqiyotida hamma davrlarda buyuk rol o‘ynaganini, shu b-n birga N. ijodining yuzaga kelishida ozarbayjon adabiyoti ham muhim o‘rin tutganini ishonchli dalillar b-n isbotlab berdi. Shu tufayli N.J.M.M.Q.ning ushbu monografiyasi matbuotda ilmiy va adabiy jamoatchilik tomonidan ham yuksak baholandi. Olima N. haqidagi o‘z ilmiy tekshirishlari asosida yaratgan “Alisher Navoiy va Ozarbayjon adabiyoti (XV–XIX) asrlar)” nomli qo‘lyozma tadqiqoti u-n 1986-y.da f.f. d-ri ilmiy darajasini olgan.

N.J.M.M.Q.ning bir qancha maqolalari o‘zbek tilida, O‘zbekistonda chop etilgan, jurnal va to‘plamlarda e’lon qilingan. U ko‘p yillar O‘zbekistonda o‘tkaziladigan va N. adabiy merosini o‘rganishga bag‘ishlangan an’anaviy ilmiy konferensiyalarning faol ishtirokchilaridan biri bo‘lib, ularda ma’ruza va ilmiy axborotlari b-n qatnashgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик. 6-8-жилдлар. – Т., 2011; “Озарбайжонда Навоий қўлёзмаларининг тарқалиши масаласи ҳақида”. Озарбайжон Фанлар академияси қошидаги Республика қўлёзмалар фондининг “Асарлар” (“Трудьı”) тўплами, 1969, №3; “Бакинские рукописи Алишера Навои”. Монография. – Боку, 1986; Абдулфаз Раҳимов. Навоий қўлёзмаларининг Баку нусхалари. Рецензия. 1987-йил 21-август; Эркинов С. Алишер Навоийнинг Баку қўлёзмалари. Рецензия // “Ўзбек тили ва адабиёти”, 1988. №1; Отакшиев И. Адабий алоқалар тадқиқотчиси // “Элм” газетаси. 1988-йил, 5-март.*

Ab.H.

“NE NAZMIKI O‘TLUG‘ KO‘NGULDAN CHIQARDIM...” – “N.Sh.” devonidan o‘rin olgan qit’a:

Ne nazmiki o‘tlug‘ ko‘nguldin chiqardim,
Dedimkim: mening xotirimga yorang‘ay.

Manga oncha o‘t soldi har baytikim, tab’,
Gar obi hayot o‘lsa andin o‘song‘ay.

Tilarmen ani men dog‘i o‘tqa solsam,
Ki qaydinki keldi ham ul sori yong‘ay.

“Dardlig‘ ko‘ngul – shu’lalig‘ charog‘”. She’r shu charog‘ning nuri b-n ta’sirli. Dardli yurakdan chiqqan so‘z yolqinida o‘quvchining ruhi yorishadi. Buningsiz aql va idrok kamolotini o‘ylash behuda. N.: “Ne nazmki o‘tlug‘ ko‘nguldin chiqardim”, deganlarida mutlaqo haq. Ulug‘ bobomizning har bir satri yurak alangasidan sachragan cho‘g‘day gap, ularni qancha ko‘p o‘qisangiz, o‘t-otash bag‘ringizga o‘shancha ko‘proq yopishib, xotira uyg‘oqligi ortadi. Bunga chidash qiyin:

Manga oncha o‘t soldi har baytkim, tab’,
Gar obi hayot o‘lsa andin o‘song‘ay.

Bu baytdan maqsad nima? O‘tda yonayotgan odam nimadan shikoyat qiladi? Albatta, o‘tning omonsizligidan. She’rlarim meni shu qadar yong‘inga giriftor etdiki, “obi hayot” sepilganda ham, ta’b bunday yong‘indan shubhasiz, bezardi, negaki, uni o‘chirish imkonsiz, demoqchi shoir. Bu chorasizlikning chorasi nima? Mana, eshiting:

Tilarmen ani men dog‘i o‘tqa solsam,
Ki qaydinki keldi ham ul sori yong‘ay.

Baytning birinchi satridagi gapga asoslanib, hazrat N. she’rlarini kuydirib, yo‘qotib tashlashni ham o‘ylagan deya, buni qandaydir dalillar b-n isbotlashga urinish, albatta, soddalik bo‘lardi. Sharq faylasuflarida, aql – bu olov, ko‘ngil – olovning o‘zgarishi natijasida boshqa shaklga o‘tishi, degan tushuncha bo‘lgan. Shoirning “o‘tlug‘ ko‘nguldan” chiqqan she’rlarini “dog‘i o‘tqa” solmoqdin murodi ko‘ngul kamolotini ko‘zlashdir. O‘tning qaydin ko‘tarilganligi ayon: ko‘nguldan. U “ul sori” yo‘naltirilsa, yana ko‘ngilga qaytmog‘i shart. Demak, o‘t yana o‘tga tutashib, asliga qaytadi. Bu “olovxona” faqat shoir qalbimi? Yo‘q. Haq ishqi cho‘g‘lanib yotgan orif she’rxonlar ko‘ngli hamdir. Zotan, oliy ishq dardiga mubtalo bo‘lmagan ko‘ngil sovuq va so‘nikdir.

Ad.: *Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2011; Ҳаққул И. Касби камол ўзни танишдир. – Т., 2021.*

I.H.

“NE RAHRAVEKI, TOJI HIDOYAT...” – N.ning “G‘.S.” devoniga kiritilgan qit’a:

Ne rahraveki, toji hidoyat boshidadur,
Yo‘q bok, anga havodisi aflok toshidin.
Hudhudki, qo‘ydilar azaliy toj boshig‘a,
Tushkaymu, jola yoqqan bilan toji boshidin?

Rahrav (rohrav) forscha so‘z, yo‘lchi, yo‘l yuruvchi, degani. Qit’a “toji hidoyat”ga erishgan solik ta’rifiga bag‘ishlangan. Shoir aytmoqchiki, Haq yo‘liga kirgan, rostlik va to‘g‘rilikka e’tiqodi sobit odam mard va jasurdir. Zamon va davr voqealari nechog‘liq o‘zgarib, turli tarzda tuslanmasin, bunday kishida qo‘rquv bo‘lmaydi. Demak, hayot va zamon “tosh”laridan cho‘chimaslikning asosiy chorasi Haqqa sadoqat va o‘ziga ishonchdir. Bunga dalil sifatida esa Hudhud qismati tanlangan. N.ning “L.T.” asarida bu qush madhida o‘qiymiz: “Hudhud (popishak) aql nuridan bahramand va rahbarlik jig‘asi b-n sarbaland bo‘lgan bir qushdirki, uning zotida sharaf va izzat nihoyat yuksak bo‘lib, boshini to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatuvchi toj bezaydi”.

Hudhud “olamda tengi va o‘xshashi yo‘q bir shoh” – Allohning mavjudligi va qudratini anglagan qush. Sharqda Hudhud to‘g‘risida to‘qilgan rivoyatlar ko‘p. Bularda u aql va donishmandlikning timsoli bo‘lib gavdalanadi. Hudhudning boshiga “azaliy toj” qo‘yilishining ildizlarini ochadigan bitta rivoyatni eslatib o‘taylik. Ma’lumki, Sulaymon (a.s.) butun

jonzotlarning, jumladan, qushlarning ham tilini bilgan. Uning saroyida ko‘p qushlar to‘plangan. Har bir qushning o‘z maxsus joyi bo‘lgan. Kunlardan bir kun Sulaymon (a.s.) butun qushlarni nazardan o‘tkazib, Hudhudning o‘rnini bo‘sh ko‘ribdi va uning o‘zboshimchaligidan g‘azablanibdi. Hudhud qaytganidan so‘ng unga og‘ir jazo bermoqqa ont ichibdi. Bir necha vaqtdan so‘ng Hudhud qaytib kelibdi. Shoh uni so‘roqqa tutibdi. Shunda Hudhud Sabo shahriga uchib borgan, u yerda bir ulkan davlat bo‘lib, podshohi Bilqis otli go‘zal xotin ekanligini so‘zlabdi. U mamlakat kishilari quyoshga sig‘inarkanlar. Rost so‘zlagani u-n Sulaymon (a.s.) Hudhudning gunohidan o‘tibdi. Keyin Bilqis xonimga maktub yozib otashparastlikdan kechib, o‘zining dinini qabul qilishga da’vat etibdi. Bilqis bunga rozilik bildiribdi. Hudhud sharofati b-n Sulaymon (a.s.) Bilqis xonimga uylangan, o‘sha-o‘sha Hudhud payg‘ambarning mehrini qozongan, yaqin sirdoshi bo‘lib qolgan ekan. Qit’adan kelib chiqadigan umumiy ma’no bunday: to‘g‘rilik yo‘li – hudhudsifatlik yo‘li. Hudhudning boshidagi toj jala yoqqani b-n tushib ketmaganidek, Haq yo‘lida yurgan kishilar hayotini ham xavf-xatarlar mahv eta olmaydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Ҳаққул И. Касби камол ўзни танишдир. – Т., 2021.*

I.H.

NE’MATOBOD – N. Hirot shahri shimoli b-n Gozurgoh tog‘i o‘rtasidagi Husayn Boyqaro hovli-joy qurish u-n o‘ziga ajratgan xushhavo manzilda 30 jerib yerga devor tortib, hashamatli saroy va go‘zal bog‘ barpo qiladi. Ko‘shki Marg‘ani o‘rnida xalq foydalanishi u-n Ixlosiya madrasasi, Dor ul-huffoz gumbazi va machit qurib obod qiladi hamda yonidan Injil arig‘i oqib, katta ko‘chasi Gavharshodbegim madrasasiga borib tutashadigan o‘zi obod qilgan manzilni N. deb ataydi. “V.” asarida uning o‘zi bu haqda nazm tili b-n shunday yozadi:

Bu buq’aki to binosi bunyod o‘ldi,
El hojat ila faqrdin ozod o‘ldi,

Darvesh-u g‘aniy ne’matidin shod o‘ldi,
Bu vajhdin oti Ne’matobod o‘ldi.

Ad.: *Алишер Навоий. Вақфия. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

E.O.

NIGARXONAYI CHIN – Q.: Suratxonayi Chin.

NIGOR – “S.I.” dostonida Hindistondagi go‘zal besha (o‘rmonzor)ning nomi. Tinchlik yo‘li b-n Hindistonni o‘ziga qaram qilib olgan Iskandar Hind Royi taklifini qabul qilib, shu o‘rmonzorda qishlab qoladi. Go‘zalligi jihatidan “Eram bog‘ining rashkini qo‘zg‘ab, aqlni lol qoldiruvchi” bu o‘rmonzor timsolida N. hind elining ajoyib tabiatini, shifobaxsh iqlimini, rang-barang va boy hayvonot va nabotot dunyosini bilimdonlik b-n vasf etadi. Shoir tasvirining nihoyatda jonli va realligiga ko‘ra, uning Hindiston tabiati, hayvonot va o‘simliklar dunyosi haqida chuqur va aniq ma’lumotga ega bo‘lganligi ravshanlashadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

A.A.

NIDO (ar. – chaqiriq, xitob) – shoirning o‘y-fikrlari, tuyg‘u-kechinmalarini kimgadir yoki nimagadir murojaat qilish orqali bayon etish usuli. U she’rning ohangini o‘zgartirib, jarangdorligini oshiradi, ta’sirchanligini kuchaytiradi. Kuchli hayajon, yoniq ehtiros, og‘ir iztirob ichra to‘lqinlangan, yongan, o‘rtangan shoir Xudoga, ko‘ngliga, yorga, do‘stga, saboga, dunyoga, falakka, zamonga yoki o‘z-o‘ziga xitoban dard-u g‘amlarini to‘kib soladi, his-tuyg‘ularini ular b-n o‘rtoqlashadi, ularga iltijo qilib, madad so‘raydi, fikr-u o‘ylarini muayyan tarzda xulosalaydi. Ishq

telbaligidan xalos etish maqsadida hajga olib borilgan Majnunning Ka'ba toshiga bosh urib, Xudodan ishq azobidan najot so'rash o'rniga ko'nglidagi ishq o'tini yanada sarbaland aylashini iltijo etib qilgan munojoti buning yorqin ko'rinishidir:

Ko'nglum g'am ila to'q ayla, yo Rab!
Ishq ichra meni yo'q ayla, yo Rab!

Derlar manga: "Ishqni unutgil,
Layli g'amidin kanora tutg'il".

Alloh-Alloh, bu ne so'z o'lg'ay,
Ul qavlg'a Tengri uzr qo'lg'ay.

Yo Rabki, bu xushguvor boda,
Jomi talabimg'a quy ziyoda!

Ul bodadin o'yla tut manga qo'sh –
Kim, yodima hargiz o'tmasun hush!

Layli ishqin tanimda jon qil,
Layli shavqin ragimda qon qil.

Dardimni najotim et, Ilohi!
Yodini hayotim et, Ilohi!

N. lafzi baytning boshida ham, o'rtasida ham, oxirida ham kelishi mumkin:

Ey ko'ngul, g'avvosi bahri vasl o'lubmen,
ne ajab,
Gar nasib emdi o'shul pokiza gavhardir manga...

Vahm et ohim o'tidin, ey gulki, davron bog'ida
Ko'z yoshimdin bu qadar
lutf-u tarovatdur sanga...

Sen gumon qilg'andin o'zga jom-u may
mavjud erur,
Bilmayin nafy etma bu mayxona ahlin, zohido.

Navoiy aksar g'azallarida o'z-o'ziga murojaat etib, fikrini yakunlaydi:

Ey Navoiy, ishq agar ko'nglungni majruh
etmadi,
Bas, nedurkim, qon kelur og'zingdin afg'on
aylagach.

Nuh umri-yu Sulaymon mulkiga yo'qtur baqo,
Ich, Navoiy, bodakim olam g'ami behudadur.

Navoiy usuliga murojaat qilmagan shoir, deyarli, topilmaydi. O'ziga xos ta'sirchan vosita sifatida u she'rga alohida ohang va joziba bag'ishlaydi.

Fitrat N. o'rniga o'zbekcha undash istilohini taklif etadi, lekin u N. so'zining barcha ma'no qirralarini qamrab ololmaydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Т., 1983; Фитрат. Адабиёт қоидалари. Танланган асарлар. 4-жилд. – Т., 2006; Зеҳний Т. Санъати сухан. – Душанбе, 1967; Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Т., 2001; Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2010.*

Y.I., E.O.

NIZOMIY ASTROBODIY (t.y.n. – Astrobod – 1576) – shoir. Mavlono Nizom nomi b-n "M.N." tazkirasining uchinchi majlisida ma'lumot berib: "Qasidani yaxshi aytur va "Bahoriya" qasidasi yaxshi voqe bo'lupdur" deb, uning matla'sini keltiradi:

Boz gulzori xat az sabzayi tar paydo kard,
Kori bo'stoni jahon rangi digar paydo kard.

Tarj.: Yana xat gulzori yangi maysalar paydo qildi. Jahon bo'stoni turfa ranglarga burkandi.

N.A. sohibdevon shoir bo'lib, devoni g'azal, qasida, tarje'band, qit'a kabi janrlardagi namunalarni o'z ichiga oladi. G'azallari, asosan, ishqiy mavzuda, boshqa janrlardagi she'rlari diniy-tasavvufiy mazmunda. "Bilqis va Sulaymon" dostonini ham o'z ichiga olgan 4 ming baytdan

ziyod hajmdagi devonining bir nusxasi Parij milliy kutubxonasida saqlanadi. 2 ming bayt hajmidagi to‘liq bo‘lmagan devoni ham yetib kelgan. Taxminan, 10 ming baytdan iborat “Osori muzaffar” (“G‘oliblik nishonasi”) (1516) masnaviysi Muhammad (s.a.v.) va uning jihodlari tasviriga bag‘ishlangan. Uning bir nusxasi Sankt-Peterburg xalq kutubxonasida saqlanadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 2. – Душанбе, 1989.*

E.O.

NIZOMIY GANJAVIY (taxallusi; asl ismi-sharifi Abumuhammad Ilyos ibn Yusuf ibn Zakiy Muayyad) (1141 − Ganja, Ozarbayjon − 1209) − ozar shoiri va mutafakkiri. Ba’zi tazkiralarning bergan ma’lumotiga ko‘ra, Nizomiyning ota-bobolari Eronning Qum shahridan bo‘lib, ilm ahliga mansub edilar. “Iqbolnoma” dostonida buni shoirning o‘zi ham qayd etib o‘tadi. Uning onasi Ganja atrofidagi qishloqlardan bo‘lib, kurd sarkardalaridan birining qizi edi. N.G. yoshligidan ota-onadan yetim qoladi. Uni boqish va tarbiyalashni tog‘asi Xoja Umar o‘z zimmasiga olib, imkon qadar uning ilm egallashiga ko‘maklashadi. U turli ilmlarni egallashga ishtiyoqmand bo‘lib, Qur’onni yodlab oladi. Keyin fiqh, tarix, jug‘rofiya, falsafa, mantiq va adabdan ta’lim olib, ularning har birida ustod darajasiga yetishdi. Tabiiy fanlar, xususan, tabobat va ilmi nujum (astronomiya)ni tamomila o‘ziniki qilib oldi. Zamonaviy ilmlardan tashqari, qadimgi yunon falsafasi va adabiyoti, eroniy xalqlarning islomdan oldingi so‘z san’ati, xalifalik davri ilmiy-adabiy asarlari, yahudiy va nasroniy xalqlari tarixi, Kavkaz xalqlarining o‘tmishidan ham yetarli ma’lumotga ega edi. Uni yetuk matematik sifatida e’tirof etardilar. Kimyo fanini chuqur bilar, hoziq tabib ham edi. Galen, Gippokrat, Zakariyo Roziy, Abu Ali ibn Sino kabi tib sohasi bilimdonlarining asarlaridan yaxshi xabardor edi. U dehqonchilik va bog‘dorchilik ilmlaridan ham bahramand bo‘lgan. Umuman, shoir she’riyati uning turli ilmlarni chuqur bilganligidan dalolat beradi. Shuning u-n ham zamondoshlari uni hakim deb ulug‘laganlar.

N.G.ning hayoti boshdan-oxir Ganja shahrida o‘tdi. Bir gal Iroq sultoni Tug‘rulshohning da’vatiga binoan Tabrizga safar qildi, biroq u yerda uch kundan ortiq turolmadi. U saroy xizmatiga kirmay, o‘z umrini erkinlik va xilvatnishinlikda o‘tkazdi. Lekin o‘sha davr hukmdorlari unga sovg‘a-salomlar yuborib turganlar. Chunonchi, Darband hokimi Boybars ibn Malik Muzaffar 1169-y. tuhfalar qatorida unga Ofoq ismli bir kanizakni ham hadya qiladi. Lekin u shoirning cho‘risi emas, balki umr yo‘ldoshi, maslahatchisi, ilhomchisiga aylandi. N.G.ga Muhammad ismli o‘g‘il hadya etgan Ofoqning umri erta xazon bo‘ladi (1180). Shoir hayotdagi eng aziz kishisi bo‘lgan bu ayol siymosini bir umr yodida saqlab, “Xusrav va Shirin” dostonidagi Shirin timsolida unga mangu hayot baxsh etadi.

N.G.ning nomini jahonga mashhur qilgan uning besh dostonni o‘z ichiga olgan “Xamsa”si bo‘ldi. Bu dostonlar − “Maxzan ul-asror” (“Sirlar xazinasi”), “Xusrav va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Haft paykar” (“Yetti go‘zal” va “Iskandarnoma”dan iborat. Abdurahmon Jomiy ta’biri b-n aytganda, shoirning “Xamsa”da “qo‘lga kiritgan nazokati va latofati hech kimga muyassar bo‘lmagan, balki, umuman, odamzot qudratidan tashqari”. N.G. esa “ul nazmlar agarchi zohir yuzidin afsonadur, ammo haqiqat yuzidin haqoyiq kashfi va maorif bayonig‘a bahonadur”, deb ta’riflaydi.

N.G.ning she’rlar devoni bizgacha yetib kelmagan. Shoirning lirik she’rlari turli bayoz va to‘plamlardan topib, jamlangan.

XV asrda N.G.ning lirik she’rlari keng o‘quvchilar ommasiga ma’lum bo‘lmagan bo‘lsa kerakki, N. N.G.ni masnaviy ustasi sifatida baholagani holda, lirik shoir sifatida tilga olmay-

di. “M.Q.”dagi shoirlar tasnifotida ham uning nomini uchratmaymiz. Lekin “X.” dostonlaridan barchasining muqaddima qismida va “S.I.” xotimasida N. N.G.ni ustoz shoir sifatida madh etib, uning she’riy mahorati va badiiy balog‘atini ta’rif-tavsif qiladi. Chunonchi, “H.A.”da N.G.ga alohida bob bag‘ishlab, uni, jumladan, quyidagi so‘zlar b-n ta’riflaydi:

Ganja quyoshiki ko‘targach alam,
Ayladi so‘z mamlakatin yakqalam...

Ko‘p kishi ham qildi tatabbu’ havas,
Sarv-u gul o‘trusig‘a kelturdi xas...

“F.Sh.” dostonida ham N.G. va Dehlaviyga alohida bob bag‘ishlaydi. Jumladan, N.G. – fil, o‘zini – pashshaga o‘xshatib, “X.” yaratishda uning ruhidan madad so‘raydi:

Emas oson bu maydon ichra turmoq,
Nizomiy panjasig‘a panja urmoq.

“L.M.”da bu ta’riflarni quyidagicha davom ettiradi:

Nazm ahlining afsah ul-kalomi,
So‘z durrig‘a muntazim Nizomiy.

“S.S.”da yozadi:

Qoyili xushkalomi zebogo‘y –
Kim, bu maydon elidin eltti go‘y.

“S.I.”da:

Tutub ganji bu charxi nuh toqni,
Nechukkim, quyosh nuri ofoqni.

Bu yanglig‘ki ganji maoniy to‘kub,
Jahon ahlig‘a jovidoniy to‘kub.

Doston nihoyasida shoir bir tush ko‘rgani va N.G. uni “X.” yozganini qo‘llab, muborakbod etganini yozadi.

“N.M.”da uni shayxlar qatorida zikr etadi: “Alarg‘a zohiriy ulumi va rasmiy istilohotdin bahrai tamom bor ermish. Ammo barchadin ilik tortib, Haq subhonahu taolog‘a yuz kelturubdurlar... Umri garonmoyani avvaldin oxirg‘acha qanoat-u taqvo va uzlat-u inzivo bila o‘tkaribdurlar va hargiz soyir shuarodek hirs-u havo g‘alabasidin dunyo arbobig‘a iltijo qilmaydurlar, balki ro‘zgor salotini alar mulozamatig‘a tabarruk tilarlar erkondur... Alarning besh masnaviysiki, “Panj ganj”ga mashhurdir. Ko‘praki salotin istid’osi bila voqe’ bo‘lubdur. Bu umidvorlig‘ bilaki, alarning nazm vositasi bila bularning otlari ro‘zgor sahifasida qolgay... Mashhur mundoqdurki, alar suluk ayyomida qirq arba’in chiqaribdurlar va to‘rt arba’inni bir daraxt ustida chiqaribdurlar. Har oyina bu nav’ mufrit riyozatlar tortmag‘uncha bu nav’ besh ganjki, alarg‘a nasib bo‘lurdurki, ko‘p ab’yoti alfoz jazolatidin va ma’noyu tarkib salosatidin desa bo‘lurki, e’joz sarhadiga yetibdur, kishining ilkiga kirmak imkon emas”.

N.dan tortib barcha o‘zbek shoirlari N.G.ni o‘zlariga ustoz deb bilishgan. N.G. nomi va uning “Xamsa”si o‘zbek kitobxonlariga o‘rta asrlardan buyon ma’lum. XIV asr o‘rtalarida Qutb Xorazmiy “Xusrav va Shirin” dostonini ona tilimizga tarjima qilgan. Haydar Xorazmiy shoirning “Maxzan ul-asror” asariga javoban “Gulshan ul-asror” dostonini bitadi. Zabardast shoir va mutarjim Ogahiy “Haft paykar”ni nasriy tarjima qiladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Низомии Ганжави. Куллиёт. Дар панж жилд. – Душанбе, 1982; Гулшани адаб. Намунаҳои назм иборат аз панж жилд. – Душанбе, 1975; Низомий Ганжавий. Гулдаста. – Т., 1947; Низомий шеъриятидан. – Т., 1983; Инжулар уммони. – Т., 1989; Лайли ва Мажнун. – Теҳрон, 2005; Хусрав ва Ширин. – Теҳрон, 2005; Иқболнома. – Т., 2009; Низомий Ганжавий. Рубоийлар // Донишмандлар туҳфаси. – Т., 2009; Абдураҳмон Жомий. Баҳористон. – Т., 1997; Бертельс Е.Э. Избранные труды. Ни-*

зами и Фузули. – М., 1962; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилди 2. – Душанбе, 1989; Эркинов С., Ғанихонов М. Низомий Ганжавий. – Т., 1992; Ҳомидий Ҳ. Кўҳна Шарқ дарғалари. – Т., 1999; Очилов Э. Булбулни мот айлаган шоир // Барҳаёт сиймолар. – Т., 2012.

E.O.

NIZOMULMULK (Xoja Nizomulmulk Xavofiy, 1498-y.da qatl qilingan) – Sulton Husayn Boyqaroning vaziri. 1472-y.da shu mansabga tayinlangan. Majdiddin devon noibi bo‘lgan vaqtda N. b-n uning orasida ziddiyat yuzaga kelgan. N. Xoja Afzal b-n birga Majdiddinga qarshi ish olib borgan va uning mansabidan bo‘shatilishiga erishgan. Shundan so‘ng to 1487-y.gacha vazirlik va devon ishlari N. va Xoja Afzal qo‘lida bo‘lgan. Lekin N. Astrobodga jo‘natilgandan so‘ng Majdiddin yana o‘z mansabiga tiklangan. Bu vaqtda N. Majdiddin b-n kelishib olgan va uning qo‘l ostida ishlagan. Majdiddin ikkinchi marta chetlatilgandan so‘ng N. bosh vazir etib tayinlangan. Bosh vazirlik faoliyati davomida u Navoiy boshliq ilg‘or kuchlar b-n qarama-qarshi pozitsiyada turgan. Navoiyning mamlakatda tinchlik va osoyishtalik o‘rnatish, shu jumladan, Husayn Boyqaroning o‘g‘li Badiuzzamon b-n yarashtirish yo‘lidagi faoliyatiga xalaqit berishga uringan. Yosh, begunoh Mo‘min mirzoning o‘ldirilishida ham uning qo‘li bo‘lgan (1497). Navoiy N.ning kirdikorlariga chek qo‘yishga intilgan, o‘zining mamlakatda tinchlik o‘rnatishga qaratilgan faoliyatini davom ettirgan. Bu Navoiy u-n oson bo‘lmagan, chunki N. Xadichabegim b-n til biriktirib olgan va malika unga homiylik ko‘rsatar edi. Shunga qaramay, Navoiy o‘ziga xos qat’iyat va sabot b-n davlatdagi sog‘lom kuchlarga tayangan holda kurashni davom ettirgan. N.ning qilmishlari va fitnalari oxir-oqibatda uning boshiga yetgan va u jazoga tortilib, qatl qilingan (1498). Uning o‘rniga esa Navoiy b-n hamfikr bo‘lgan Xoja Afzal tayinlangan. Navoiyning quyidagi qit’asi N.ning hibsga olinishi va so‘roq qilinishi voqealariga bag‘ishlangan:

Sohibi a’zam Nizomulmulk, chunkim bo‘ldi azal,
Hajvlar qildi Utorud charxi kajraftorni,

Chun havodis tunbodi esdi, barbod ayladi,
Yo‘qki muhr-u daftar-u zelucha, yo‘q-u borni.

Band-u tutqunluq bas ermas erdikim, bemorlig‘
Bir yo‘li soldi ayoqdin ul faqiri zorni.

Keltururlar so‘rg‘oli devong‘a oni xojalar,
Voqean, bu nav’ so‘rg‘ay do‘stlar bemorni.

“M.N.”da Navoiy N.ning o‘g‘li Xoja Kamoliddin Husayn haqida ma’lumot beradi va shu munosabat b-n N. haqida ham mulohaza yuritib, o‘sha paytda uning e’tibori va martabasi qanchalik baland bo‘lganligini ko‘rsatuvchi so‘zlarni bitadi: “Otasining taayyun va ishtihori burung‘i Nizomulmulkdin ortug‘roq bo‘lmasa, o‘ksuk kam emas. E’tibor yuzidin aning bila teng bor edi. Ammo mansab yuzidin ortti, nechukkim ul vazir erdi, bu vazorat mansabin tay qildi va holo ashrafi oliy martabasida mutamakkindur”. Bu o‘rinda Navoiy “burung‘i Nizomulmulk” deganda mashhur tarixiy shaxs, XI asrda yashagan davlat arbobi, saljuqiylarning mashhur vaziri, “Siyosatnoma” asarining muallifi N.ni nazarda tutadi va N.ning mavqeyini uning mavqeyi b-n qiyoslaydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Хондамир. Ҳабиб ус-сияр. – Т., 2011; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985.*

Q.E.

NIZORIY ABDURAHIM (1770–1848) – qashqarlik uyg‘ur shoiri, xattot, tarjimon. U Qashqar hokimi Zuhriddinbek saroyida bosh mirza sifatida faoliyat yuritgan. Maktab va madrasalar u-n Hofiz va N. asarlari asosida darsliklar tuzgan (1805). N.ning 40 dan ortiq g‘azallariga

muxammas bog‘lagan. Jumladan, N.ning “Sabukruh soqiy, fano jomi tutqil / Ki, o‘zluk yukidin garonborlarbiz” baytiga “Ayo, charxi zolim, jafoni unutqil, / Zamona vafo qilki, bizni ovutqil, / Xaloyiq ishidin ko‘ngulni sovutqil, / Sabukruh soqiy, fano jomi tutqil / Ki, o‘zluk yukidin garonborlarbiz” shaklida taxmis bog‘lagan. N.A. uyg‘ur adabiyotida ilk bora to‘qqizta doston yaratgan. Hokim Zuhriddinbek buyurtmasiga ko‘ra Nizoriy Navruzoxun Ziyoyi va Turdushoxun G‘aribiy b-n birgalikda N. “X.”siga nazira tarzida “G‘ariblar hikoyati” – “Muhabbat dostonlari” (1841–1844) nomli dostonlar, g‘azal, muxammas va hikoyatlar, jami 18 ming baytdan iborat asar yaratganlar. Xususan, “Xamsa”ga izdoshlik tariqasida “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Shoh Bahrom va Dilorom” dostonlarini bitgan. “G‘ariblar hikoyati”ning bir nusxasi XXR, Urumchi shahar, tarixiy yodgorliklar muzeyida (№93), yana biri Sankt-Peterburg qo‘lyozmalar bo‘limida (№ S165) saqlanadi. Xattot sifatida N. kulliyotini (O‘zR FAShI №136), Umar Xayyom, Hofiz, Bedil she’rlarini ko‘chirgan, “Shohnoma”, “Ming bir kecha”ning 370 dan ortiq hikoyatini uyg‘ur tiliga tarjima qilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-жилдлар. – Т., 2011; Рўзиева Д. Алишер Навоий традициялари Абдураҳим Низорий ижодида (ўзбек-уйғур адабий алоқаларига доир). Филол.фан.ном. дисс. – Т., 1974; Рўзиева Д. Алишер Навоий ва Абдураҳим Низорий. – Т., 2016.*

O.T.

NIKITSKIY Mixail – turkolog, n.shunos. 1855-y.da Sankt-Peterburg universiteti tarkibidagi Sharqshunoslik bo‘limi maxsus qaror b-n Sharqshunoslik fakultetiga o‘zgaradi. N. asarlari o‘quv rejasiga kiritilib o‘qitila boshlanadi. Bu harakatlarning samarasida anchadan beri shoir ijodini o‘rganayotgan universitet tolibi N.M.ga “Amir Nizomiddin Alisher: davlat arbobi va shoir sifatida” nomli magistrlik dissertatsiyasini yozish topshiriladi. Ko‘p o‘tmay bu tadqiqot yuzaga chiqadi va 1856-y.da Sankt-Peterburg Fanlar akademiyasi nashrida chop etiladi. Keyingi yilda prof. I.Berezin tomonidan ilk bor turkiy adabiyot bo‘yicha darslik yaratiladi va unga N. asarlaridan ham parchalar kiritiladi.

N.M. o‘zigacha Yevropa adabiyotidagi tadqiqotlarni, shuningdek, shoir yashagan yillarga yaqin davrlarda yaratilgan forsiy va turkiy manbalarni sinchiklab o‘rganadi, ulardan unumli foydalanadi va adabiy-ilmiy jamoatchilikni N. ijodining eng muhim qirralari b-n tanishtiradi. N.M. o‘z tadqiqotida rus sharqshunosligida birinchi bo‘lib N.ning serqirra faoliyatini imkon qadar yoritishga harakat qilgan. Bu dissertatsiya ayrim kamchilik va chalkashliklardan xoli bo‘lmasada, keyingi ishlarga asos manba bo‘lib xizmat qilgani hamda rus n.shunosligini boshlab bergani b-n ham alohida qimmat kasb etadi.

Ad.: *Никитский М. Эмиръ Низам Эд Динъ АлиШиръ.Государственномилитературном его значении. – Санкт-Петербург, 1856; Березин И. Турецкая хрестоматия. – Казань, 1857.*

G.X.

NIMRO‘Z – hozirgi Afg‘onistonning janubiy-g‘arbida joylashgan viloyat. G‘arbda Eron, janubda Tojikiston b-n chegaradosh. Aholisi, asosan, pushtunlar va belujlardan iborat. Oz bo‘lsa-da, o‘zbeklar ham yashaydi. O‘tmishda Zobuliston deb ham atalgan. N. – Alisher Navoiy asarlarida tilga olingan. Ulug‘ shoir N.ni she’riy misralarda ham ta’rif etgan:

Ki, anhoridin mulki Zobuliston,
Bo‘lub zeb-u ziynat aro guliston.

Safo ichra ko‘zga berib xiraliq,
Hamul mulkdin raf’ etib tiraliq.

Yoruq, o‘ylakim mehri getifiruz,
Bu ma’nidin oti kelib Nimro‘z.

Bu kishvarda har bir gado Hotame,
Dog‘i har sipohi kelib Rustame.

“M.N.”da Navoiy Ibrohim Muhammad Xalil haqida ma’lumot beradi va uning otasi Xalilbekning uzoq yillar N. va G‘aznada hokim bo‘lganini qayd etadi: “Ibrohim Muhammad Xalil – Muhammad Xalilning o‘g‘lidir va Xalilbek yillar Nimro‘z mulkidin G‘azna navahiysigacha hukumat qildikim, ba’zi vaqtda hech podshohqa tobe’ ham emas erdi va bu Ibrohimning yaxshi ta’bi bor…”.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Абдураззоқ Самарқандий. Матлаъи саъдайн ва мажмаъи баҳрайн. – Т., 1969.*

Q.E.

NISO – Antik davr va o‘rta asrlarning yirik shaharlaridan biri bo‘lib, qadimgi davrlarda Parfiya podshohligining poytaxti bo‘lgan. Xurosonning shimoliy qismida, hozirgi Turkmaniston hududida joylashgan bo‘lib, bugungi kunda xarobalari saqlanib qolgan. XV asrning 80-yillaridan boshlab temuriylar davlati tarkibiga kirib, o‘zining muayyan ahamiyatini saqlab turgan.

N. shahri Navoiy asarlarida “Naso” deb atalgan. “T.M.A.”da ushbu shahar tarixiga oid ma’lumotlar mavjud. Navoiyning fikricha, N. shahri kayoniylar sulolasidan bo‘lgan Ajam hukmdori Gushtosb zamonida bunyod etilgan. Shuningdek, shoir N. Gushtosbning nevarasi Bahman tomonidan barpo qilingan, degan ma’lumotni ham keltiradi. Navoiy “N.M.” tazkirasida Abulabbos Nisoiy, Abu Bakr Javzaqiy, Abu Muhriz Sheroziy, Abulqosim Muqriy singari karomatli shayxlardan so‘z yuritganda, N.ni tilga olgan. Jumladan, Abu Ja’far Muhammad b. Ali Nisoviy ismli to‘rtinchi tabaqa vakilini N.ning ajilla, ya’ni muhtaram, ulug‘ mashoyixlaridan edi, deydi. Bobo Ali Mast Nisoyi fiqrasida N.ning eski qo‘rg‘oni haqida ham aytib o‘tadi. Hozirgi arxeologik tadqiqotlar ikki – Eski va Yangi N. mavjud bo‘lganini tasdiqlaydi. Shuningdek, Navoiy yuqorida tilga olingan avliyo zikrida u b-n Husayn Boyqaro o‘rtasidagi muloqot va shayxning karomatidan hikoya qilgan. Shuningdek, yana bir fiqrada Navoiy Sayyid Muhammad Madaniy himmati b-n N.da tarqalgan vabo daf’ bo‘lgani hamda Husayn Boyqaroga ko‘p iltifotlar qilganini yozadi. Navoiy pir Mira Nisoburiy haqida so‘zlarkan, uni ulug‘ so‘fiy va malomatiy, deb ta’riflab, N.ga borganda, uning atrofida ko‘plab muridlar yig‘ilgani xabarini beradi.

N. shahrining Navoiyning tazkira va tarixiy asarlarida mashhur shayx, Eron podshohlari b-n bog‘liq holda o‘nlab o‘rinlarda zikr etilishi, mazkur shaharning sharafli, madaniy-tarixiy ahamiyatga ega markaz bo‘lganidan dalolatdir.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; ЎзМЭ. 6-жилд. – Т., 2003; Кошеленко Г. А., Культура Парфии. – М., 1966; Пугаченкова Г. А. Искусство Туркменистана. – М., 1967.*

Q.E., S.O‘.

“NISOBI NAVOIY” – lug‘at. Ma’lumki, N. forsiyzabon xalqlarning ham diqqatini o‘ziga tortgan. Shu sababli N. asarlari bo‘yicha bir qancha turkiy-forsiy lug‘atlar paydo bo‘lgan. Ana shu turkumdagi lug‘atlardan biri “N.N” nomli 76 misrali she’riy lug‘at bo‘lib, N.ning 1571-y.da ko‘chirilgan “X.” asarining 202 b – 203 a – 203 b varaqlari hoshiyasiga noma’lum shaxs tomonidan yozilgan. Yozuv xususiyatlariga qaraganda, bu she’riy lug‘at doston ko‘chirilib bo‘lganidan ancha keyin bitilgan. Matn mazmunidan uning tugallanmaganligi ma’lum bo‘ladi. Unda N. asarlarida uchragan eski o‘zbek tilidagi so‘zlarning forsiy variantlari she’riy yo‘l b-n izohlangan. M-n:

Telba – devona-yu chuchuk – shirin,
Tustog‘on – ast kosayi chubin.

Tegra – atrof; g‘amz – nodoniy,
Meng – xol ast; oynak – peshoniy.

Sharmro – nom chun uyot omad,
Boz ma’ni zud – bot omad.

Qo‘rg‘on – qal’avu ilik – shud dast,
Biyik – omad balandu quyi – past.

O‘ro? – qavom shud; singil – hohar
Yosh – shud bachau yotlig‘ – duxtar.

Qayn – shukufa ast; qo‘zg‘olon – g‘avg‘o,
Ulku – bongi sag ast; dodan – ado.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-жилдлар. – Т., 2011; Умаров Э. Навоий асарига шеърий луғат // Адабий мерос. – Т., 1973. №3.*

E.U.

NISH – ari va chayonning nayzasi yoki tikan, tikanning uchi. Mumtoz adabiyotda N. azob-mashaqqat va ninani ham bildiradi. Navoiy she’riyatida ham ana shunday ma’nolarda qo‘llangan. M-n:

Firoq nishlari, vahki, yana rahm etmay,
Nafas-nafas nega majruh ichimga sonchilasiz?

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011.*

V.R.



NISHOPUR – Xurosonning qadimiy shaharlaridan. Eramizning uchinchi asrida paydo bo‘lgan, deb hisoblanadi. O‘rta asrlarda yirik madaniyat markazlaridan biri bo‘lgan va bu yerdan ko‘plab olimlar, shoirlar yetishib chiqqan. O‘zining bu mavqeyini shahar temuriylar davrida ham saqlagan. N. Navoiy asarlarida ham tilga olinadi. “T.M.A”da shaharning tarixiga oid ma’lumotlar mavjud. Navoiyning fikricha, N. peshdodiylar sulolasidan bo‘lgan shoh Tahmuras tomonidan bunyod etilgan. Lekin ko‘p o‘tmay vayron bo‘lgan. Shaharning keyingi obodonligini Navoiy sosoniy hukmdorlardan Shopur binni Ardasher faoliyati b-n bog‘laydi. Bu haqda Shopur zikrida shunday deyilgan: “Va aning osoridin Xurosonda Nishopurdurkim, ani Tahmuras bunyod qilib erdi, tuganmasdin burun buzuqluqqa yuz qo‘ydi. Ani Shopur yangi boshtin shatranj bisoti vaz’i bila obodon qildi”. Navoiy N.da bo‘lgan, u yerdagi adabiy hayotni, shoirlarni yaxshi bilgan va ular haqida o‘z tazkirasida ma’lumot bergan. Mavlono Kanbariy, Mavlono Ziyoiy, Mavlono Siymiy, Mavlono Nuriy kabilar shular jumlasidandir. Buyuk shoir shaharning obod bo‘lishiga ham katta hissa qo‘shgan. U N. atrofidagi Dizobod degan joyda rabot qurdirgan. Manbalarda Navoiyning 902 hijriy (melodiy 1496–1497-yy.) yilda N.ga tashrif buyurgani qayd etilgan. Bu yerda u ko‘plab buyuk kishilarning maqbaralarini ziyorat qilgan va shu asnoda ularning ko‘pchiligi buzilib ketayotganini ko‘rgan va qaytadan ta’mirlab obod qilishga buyruq bergan. O‘sha vaqtda Shayx Farididdin Attor mozori ham obod qilingan va mozor boshida honaqoh barpo etilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи мулки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ғиёсиддин Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Т., 2015; ЎзМЭ. 6-жилд. – Т., 2003.*

Q.E.

NISHOTIY (Taxallusi; ismi: Muhammadniyoz) (XVIII asr, Xiva) – shoir. Xiva maktab va madrasalarida tahsil olgan. XVIII asrning 40–60-yy.da hukmdorlar uy-joyini tortib olgach, Buxoroga ketib qolgan, lekin bu yerda ham hayoti ko‘ngildagiday kechmagan. Bizgacha uning 38 g‘azali, 14 muxammasi, bittadan musaddas va qasidasi, “Husn va Dil” dostoni yetib kelgan. “Qushlar munozarasi” nomli mo‘jaz dostoni ham bor, asosan, Navoiy va Fuzuliy ta’sirida ijod qilgan. Navoiyning bir necha g‘azallariga tatabbu’ qilgan, qator g‘azallariga taxmis bog‘lagan, ulug‘ shoir ta’siri va ilhomida bayt-u misralar bitgan. N.ning 14 muxammasidan 13 tasi Navoiy g‘azallariga bog‘langan. Shundan shoirning o‘zining buyuk salafiga qanchalik sidq-u ixlosi borligini bilish mumkin. Bu muxammaslarda u she’riyat sultoni “panjasiga panja urib, qalami kuchini ko‘rsatishga intilgan. Jumladan, Navoiyning “Bulbul bahor faslida gul-u gulzordan mahrum bo‘lganidek, men ham navbahor ayyomida diyor-u yorsiz qoldim”, – mazmunidagi matla’ b-n boshlanadigan mashhur g‘azalini “O‘shal chiroyli xirom aylaydigan sarvday mahbuba jamolidan yiroq tushib, xokiy tanim g‘uborga aylanib, quyunday to‘zib ketdi; bu dunyoda menday baxtdan mosuvo yana bir kishi bo‘lmasa kerak; qurigan daraxtning na mevasi, na bargi bo‘ladi” kabi bayt mazmunini yanada kengaytiradi va teranlashtiradi, misralar b-n boyitadi:

Bo‘ldi xoki tan quyun ul sarvi xushraftorsiz,
Bo‘lmag‘ay olamda mendek baxti barxurdorsiz,
Bir qurug‘on naxldekkim, bo‘lsa barg-u borsiz,
Navbahor ayyomi bo‘lmish – men diyor-u yorsiz,
Bulbul o‘lg‘ondek bahor fasli gul-u gulzorsiz.

Bu muxammas shoirning tug‘ilgan yurtidan judo tushib, Buxoroda sarson-sargardon yurgan paytlarida yozilgan bo‘lishi, ehtimol.

N. Navoiy g‘azallarida keng qo‘llaniladigan quyun, novak (kiprik o‘qi) kabi timsollar asosida ham bir qator baytlar ijod qiladi. M-n:

Garchi o‘lturding meni, novaklaringdin
jong‘a ham
Lutf qil bir o‘q – yashil tuslug‘ kamoning
sadqasi, –

bayti Navoiyning ma’shuqa kiprigining o‘qlari oshiq jarohatlariga malham ekanligi haqidagi misralariga hamohang jaranglaydi.

“Husn va Dil” dostoni ham “X.” dostonlarining ilhombaxsh ta’siridan xoli emas.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-жилдлар. – Т., 2011; Нишотий. Танланган асарлар. – Т., 1960; Нишотий. Ҳусн ва Дил. Лирика. – Т., 1967; Абдуллаев В. Хоксор ва Нишотий. – Т., 1960; Қосимова М. Муҳаммадниёз Нишотий. – Т., 1987.*

E.O.

NIYAT – biror narsani maqsad qilish, qasd, jazm, orzu-umid. Hadislardan birida – “Amallar niyatiga ko‘radir”, deyilsa boshqa bir hadisda “Mo‘minning niyati amalidan afzaldir”, deyiladi. Shuning u-n ham musulmon Sharqida biror ish qilishdan oldin yaxshi N. qilish muhim sanaladi. Navoiy asarlarida ish va N. birligi, niyatning muhimligi ayrim misollardan ayon bo‘ladi. Shoir “N.M.” asarida shayxlarning N.ga ahamiyat berganligini ularning ayrim so‘zlari orqali ko‘rsatib o‘tadi. “...chun bu niyat bila xilvatqa kirdim, xilvat tamom muyassar bo‘lmadi va chiqdim..”. “...Shayx manga boqdi va dediki, kirgil, niyatni durust qilding”. Shohning taqdiriga podsholik yozilgan bo‘lsa, doim darveshlikni (so‘fiylikni) orzu qilsa ham shohligicha qoladi.

Shohg‘a shahlig‘ musallamdur, agar
bo‘lg‘ay mudom,
Shohlig‘ tarkin qilib, darvesh o‘lur niyat anga.

Navoiy ofiyat kunjini, osoyishtalikni istaydi, lekin zamona tashvishlari tufayli uni topolmaydi, hamma ishi barbod bo‘ladi. Koshki, ko‘nglimdan bu N. o‘tmasa edi, deb afsus chekadi.

Ofiyat kunjin, dedim, istay buzuldum bir yo‘li,
Ko‘nglum ichra kechmagay erdi bu niyat koshki.
Toki bayram shomi savm ahli talab qilg‘ay hilol,
Ro‘za niyat aylamay qilmaq may ichmak niyatin.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Амаллар ниятга боғлиқдир. – Т., 2015.*

S.R.

“NIHONIY IGNA SANCHAR YORLARDIN...” – N.ning “B.V.” devoniga kiritilgan qit’asi:

Nihoniy igna sanchar yorlardin,
Aduvash novakafganlar ko‘p ortuq.
Munofiqsheva zolim do‘stlardin,
Muxoliftab’ dushmanlar ko‘p ortuq.

Do‘st – ko‘ngil uyining obodligi. Do‘st siymosida jahonning eng ulug‘ quvonchlaridan biri aks etadi. Lekin bu gaplar chin do‘stlikka tegishli. Haqiqiy do‘stlikni donishmandlar ikki vujuddagi bitta qalb, deyishgan. O‘rtada e’tiqod va maslak birligi bo‘lmasa, do‘stlik yo‘q. Odamni odamga yaqinlashtiradigan xislatlar ko‘p. Nodonni nodonga nima yaqin qiladi? Gumrohlik. Jaholat. “Jaholat deb o‘qumagan, hech narsaga tushunmaydurgan nodonlikni aytilur”, – deydi Abdulla Avloniy. – Jaholat insoniyatning eng zo‘r dushmani va yomon xulqlarning boshlig‘idur. Yomon xulqlarning topishuvi hamma payt yovuzlik va pastkashlik ravnaqiga xizmat qiladi. Mana shuning u-n olomon o‘rtasidagi do‘stliqdan ehtiyot zarurdir.

Do‘stlikning uzilmas rishtalari: mehr, imon, diyonat va vijdon uyg‘unligi. Ammo uning halqalari – Vatan tuyg‘usi va xalq ishqidir. Vatan erki va xalq istiqboli dardida o‘rtangan kurashchan yuraklar topishuvigina oqibatli va do‘stlikda ajralmasdir. Bunday holatda riyokorlik qilib bo‘lmaydi. Xiyonat o‘z vijdoningga xiyonatga aylanadi. Ammo hayot shafqatsiz. U negadir tom ma’nodagi yor-u birodarliqdan qizg‘anadi. Do‘st timsolida ko‘pincha e’tiqodi sust, makkor kimsalarni kishiga ro‘baro‘ etib qo‘yadi. N. bizga tanitib ketgan “nihoni igna sanchar yorlar” ham ayni shu toifa kimsalardandir. Ular go‘yo zohirdan sadoqatli do‘st. Lekin ichdan dushman. Buni sir tutmoq u-n turlanib, riyo yo‘lkalaridan munofiqlik ko‘chalariga chopib yashashadi. N. bunday “do‘st”dan oshkora o‘q uzuvchi dushmanni ko‘p afzal bil, deydilar. Dushman o‘z nomi b-n dushman. Uning butun qilmishi kishini hushyorlikka, qarshi choralar ko‘rishga undab turadi. Maqsadi buzuq munofiq “rafiq” esa sizni g‘aflatda qoldiradi. Undan zulm kutilmaydi. Biroq u kutilmagan joy va xayolga kelmagan tomonlardan jabr-u jafo o‘tkazadi. Bu yomon, albatta. Xullas, “nihoni igna sanchar” “do‘st”lardan qancha tez uzoqlashilsa, o‘shancha yaxshi va foydalidir.

Ad.: *Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик, 3-жилд. – Т., 2011.*

I.H.



NODIRA (1792, Andijon – 1842, Qo‘qon) – shoira, davlat arbobi. Andijon hokimi Rahmonqulibiy xonadonida dunyoga keladi. Onasi Oyshabegim ham ma’rifatli ayol bo‘lgan. U otinbibilar qo‘lida savod chiqaradi. Yoshligidan adabiyotga mehr qo‘yib, Sa’diy, Hofiz, Jomiy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Fuzuliy, Bedil asarlarini sevib mutolaa qiladi (keyinchalik u forsiy she’rlarida Kamol Xo‘jandiy va Qosim Anvor nomlarini ham hurmat b-n tilga oladi). O‘tkir zehni, go‘zal xulqi, tengsiz husni b-n tanilgan qizga o‘sha davrda Marg‘ilon hokimi bo‘lib turgan Umarxon g‘oyibona oshiq bo‘lib, 1807-y. da unga uylanadi. Ular aslida qarindosh bo‘lib, Rahmonqulibiy Umarxonning tog‘asi edi. Ular Sultonmahmudxon va Muhammadalixon ismli 2 farzand ko‘rishadi.

Qo‘qon xonligidagi ziddiyatlar tufayli akasi Olimxon o‘ldirilgach, Umarxon taxtga o‘ti-

radi. N.ning shundan keyingi hayoti Qo‘qon b-n bog‘liq. 1822-y.da Umarxonning bevaqt vafotidan keyin 14 yashar o‘g‘li Muhammadalixon uning o‘rnini egallaydi. Amir Nasrullo 1842-y.da Qo‘qonga qo‘shin tortib, N.ni ikki o‘g‘li, 14 yoshli nabirasi Muhammadaminxon, kelinlari va yaqin mahramlari b-n birga qatl ettiradi.

Qo‘qon adabiy muhitining aksar namoyandalari kabi N. u-n ham Navoiy ijod yo‘lidagi ma’naviy rahnamo edi. U so‘z saltanati sultonining “Aylab”, “Aylagach”, “Oqibat”, “Subh”, “Shayx”, “Qildi yor”, “Ixtisos”, “Etgudek”, “Aylaram”, “O‘lmasun”, “Kelmadi”, “Tutay”, “Xalos”, “Yetti firoq”, “Ham” radifli ko‘plab g‘azallariga tatabbu’ qilgan, “Ko‘ngul jon birla bo‘ldi hamrahing, men dard ila turdum” misrasi b-n boshlanadigan g‘azaliga taxmis bog‘lagan, navoiyona uslubda talay she’rlar bitgan, o‘z manzumalarida ustoz shoirning fikrlarini rivojlantirib, tashbehlarining yangi qirralarini ochgan.

Suyukli yori Amir Umarxondan erta judo bo‘lgan N. asosan, Navoiyning ayriliq mavzusidagi g‘azallariga tatabbu’ qiladi, taxmis bog‘laydi. Jumladan, muxammasida shunday misralarni o‘qiymiz:

Vido’ingni qilurda kuydi jonim xayrbodidin,
Falak saqfi qorardi dudi ohimni midodidin,
Jahon zulmatsaroyi dudi ohim imtidodidin,
Nishondur tiyra bo‘lg‘on axtari baxtim savodidin,
Tuganlarkim, firoqing o‘tidin g‘am shomi kuydurdum.

Navoiy aytadiki: “G‘am tunida firog‘ing o‘tidan kuyib paydo bo‘lgan dog‘lar qora bo‘lgan baxtim yulduzining qoraligidan nishondir”. N. tomonidan qo‘shilgan misralar esa ana shu qayg‘uli holatning izohi bo‘lib xizmat qiladi: “Sen b-n vidolashayotgan paytda bir umrga xayrlashish alamidan jonim kuydi. Ohim tutunining qorasidan, hatto falak tomi xira tortdi. Mening oxiri ko‘rinmaydigan muttasil ohim tutunidan jahon ham qora zulmat ichida qoldi”. Navoiyning ayriliq alami mavzusidagi bayti N.ning hayot hamrohidan ajralganligi o‘z ifodasini topgan mungli misralari b-n qo‘shilib, hijron g‘ami tasviriga bag‘ishlangan qayg‘uli bir bandga aylangan.

N. Navoiyning ramali musammani maqsur (foilotun foilotun foilotun foilun) vaznida yozilgan 7 baytli “Yor” radifli g‘azaliga ayni vaznda “Qildi yor” radifi b-n tatabbu’ qiladi. Aslida bu ibora Navoiy g‘azalining ilk misrasida mavjud. Tatabbu’ ham 7 bayt hajmida:

Navoiy:

Voy, yuz ming voykim, tarki muhabbat qildi yor,
Bilmayin qoldim men-u qilmay xabar ayrildi yor.

N.:

Voykim, o‘z yoridin qat’i muhabbat qildi yor,
Bir yo‘li tarki vafo birla muruvvat qildi yor.

Radif yangilangani, qofiya tizimi o‘zgarganining o‘zi tatabbu’ning o‘ziga xos ohoridan darak beradi. Ayni paytda mavzu talqinida boshqa o‘zaro o‘xshashliklarni ko‘rmaymiz. Bu hol xalaf shoirning salaf shoir ta’sirida, uning g‘azalidan ilhomlanib yangi g‘azal ijod qilganligidan dalolat beradi.

Navoiy g‘azallariga tatabbu’ qilish, taxmislar bog‘lashdan tashqari, N. buyuk salafi uslubida qator she’r va baytlar ijod qilgan, ularda ustozining u yoki bu fikrini davom ettirgan, tashbehlarining yangi qirralarini ochgan, tasvirlarini yangi chizgilar b-n boyitgan. M-n, bu dunyodan vafo izlab ovora bo‘lmaki, hayot bo‘stoni bunday gulni ko‘rgan emas mazmunidagi baytlar Navoiy ijodida ko‘p uchrashi ma’lum. N.ning “Ey dil, vafo rangi-yu muhabbat giyohidan umid qilmaki, dunyo bo‘stoni bu rang-u bo‘yni hali hech kishiga ko‘rsatgan emas” mazmunidagi:

Vafo rangi, muhabbat nakhatin ko‘z tutmag‘il, ey dil,
Bu rang-u bo‘y ko‘rguzmas kishiga dahr bo‘stoni, –

bayti Navoiyning “Muruvvat rangi-yu insof isini eldan tama qilmaki, bu olam gulistonida bunday rang-u bo‘ylik gul” mazmunidagi quyidagi misralari ta’sirida yaratilgani shubhasiz:

Muruvat rangi-yu insof isi ko‘z tutmag‘il eldin,
Bu rang-u bo‘yluq gul yo‘q chu olam
gulsitoninda.

Navoiyning “Bu olam uyini afsus-nadomat bilan tark etmay desang, kamol kasb et, chunki kamolotga erishmay dunyodan o‘tish hammomga kirib poklanmay chiqishga o‘xshaydi” mazmunidagi mashhur qit’asi bor. Chunki bu dunyoda yashashdan maqsad xulqni go‘zallashtirish, ko‘ngilni poklash, ruhni yuksaltirish, ma’rifatli bo‘lish, komillikka erishishdan iborat. O‘ziga yuklangan bu vazifani ado etmagan kishi dunyoga behuda kelib-ketganday gap. Bu hol xuddi poklanish maqsadida hammomga borib, undan poklanmay chiqishga o‘xshaydi:

Kamol et kasbkim, olam uyidin
Sanga farz o‘lmag‘ay g‘amnok chiqmoq.

Jahondin notamom o‘tmak biaynih,
Erur hammomdin nopok chiqmoq.

Quyidagi baytida N. jahonning o‘zini muazzam bir hammomga nisbat berib, “Bu dunyo hammomiga kirganlar oqibat yo poklanib chiqadi, yo bulg‘anib” deya, bu fikrni ochiq aytadi:

Jahon hammomig‘a kirganlar oxir,
Mutahhar chiqqusidur yo mulavvas.

Turkiy devoni tadqiqi N.ning o‘zbek tilidagi ijodida, asosan, Navoiydan ta’sirlanganini ko‘rsatadi. Shoiraning biror she’ri u yoki bu darajada Navoiy ta’siridan xoli emas. Navoiyning N.raga ta’siri faqatgina tatabbu’ va muxammaslari yoki navoiyona she’r-u baytlari qiyosi misolida tekshirishning o‘zi kifoya emas, bu ta’sir izlari va qirralarini Navoiyning umumijodi miqyosida tekshirish kerak bo‘ladi. Chunki shoira ijodida ulug‘ shoir adabiy merosining bir butun ta’sirini kuzatamiz.

Agarda Amiriy N.ga she’riyat alifbosini o‘rgatgan bo‘lsa, Navoiy unga mahorat sabog‘ini berib, ijodning katta yo‘liga olib chiqdi deyishimiz mumkin. Navoiy Amiriyning ham sevgan shoirlaridan bo‘lib, u buyuk salafining ko‘plab g‘azallariga tatabbu’ qilib, 24 ta g‘azaliga taxmis bog‘lagan. Binobarin, Navoiy merosi Amiriy ijodi u-n ham o‘ziga xos ta’sir manbayi va mahorat maktabi bo‘lgan. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, Navoiyning N. ijodiga ta’siri ikkiyoqlama bo‘lgan: bevosita va bilvosita, ya’ni o‘zi va Amiriy orqali. Chunki ilk saboqni Amiriydan olgan N. bir umr sevimli yorining devonlarini qo‘lidan qo‘ymagan, ayni paytda Navoiy asarlari mutolaasini ham kanda qilmagan.

Ad.: *Нодира. Девон. – Т., 1963: Нодира-Комила. Девон. – Т., 2001; Нодира. Тушумда кўрсам эди. – Т., 2015; Алишер Навоий. ТАТ. 10 жилдлик. – Т., 2011; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 2002; Қодирова М. Нодира // Ўзбек адабиёти тарихи. 5 жилдлик, 4-жилд. – Т., 1978; Очилов Э. Нодира ва Навоий // “Алишер Навоийнинг жаҳон адабиётида тутган ўрни” мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Т., 2022.*

Z.Q., E.O.

NOZMEHR (Mehrnoz) – muazzam “X.”, aniqrog‘i, “S.I.” dostonidagi qahramonning ismi. Asarda tasvirlanishicha, N. Iskandarga bo‘ysunishni istamagan Kashmir hukmdori Mallu ibn Mabokning go‘zallikda tengsiz qizi. Iskandar b-n jangda Mallu ibn Mabok mag‘lub bo‘ladi. Yarador qiyofada Iskandarning oldiga keladi va kechirim so‘raydi. Iskandar Malluning uzrini qabul qiladi. Ko‘p fursat o‘tmay, Mallu vafot etadi. Iskandar uning vasiyatiga ko‘ra, qizi N.ga uylanadi, Malluning o‘g‘li Feruzni

esa Kashmir yurtiga podsho etib tayinlaydi. N. nafaqat go‘zallikda, balki tafakkur bobida ham barkamol edi. U b-n suhbatlashib, Iskandarning ko‘ngli bahra topardi. Bu haqda Navoiy shunday yozadi:

Yana Nozmehr o‘lg‘ay oromi ruh
Ki, topqay muloqotidin kom ruh.

Dostonning LVI bobida Iskandar va N.ning to‘y tasviri nihoyatda san’atkorlik va ko‘tarinki ruh b-n badiiy ifoda topgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

M.A.

NOLA – forsiy so‘z bo‘lib, g‘am-alam, hasrat-u xusronni, yolvorish, o‘tinish, iltijoni ifodalovchi mungli ovoz, oshiqning munojoti. N.da ingranish, ezilish ma’nolari o‘ta kuchli, oshiqning ushbu holatini yanada bo‘rttirish u-n nola ko‘pincha faryod, fig‘on, zor, girya so‘zlari b-n birga keladi:

Oz-ozg‘ina bergan soyi gul atri nasim,
Bulbuldek ishim nolavu faryod o‘lg‘on.

N., ayniqsa, zor so‘zi b-n qo‘llanganda, shiddatli sevgi, ishqni axtarish ma’nolarini beradi.

Ta’kidlash joizki, Navoiyning N.ga mazhar bo‘lgan makoni ko‘ngildir. Shu bois N. tasviri berilgan baytlarda ko‘ngil kalimasi uchraydi:

Nolani har nechakim eldin nihon aylar ko‘ngul,
Seni sog‘ing‘och, yana bexud fig‘on
aylar ko‘ngul.

N. mashoyixlar saharda qiladigan Allohga iltijo ekan, Navoiy devonida ham shu mazmunda bitilgan baytlar ko‘plab uchraydi:

Navoyiyo, kecha-kunduz xat-u yuzini tilab,
Shabona navha bila nolayi sahar toptim.

Aslida navha so‘zi ham N. ma’nosini beradi. Shoir bu so‘zlarning ma’no noziklarini e’tiborga olgan holda qalb holatlarini ifoda etadi. Nola qiluvchi sifatida ko‘ngildan so‘ng eng ko‘p bulbul va nay obrazlari tilga olinadi:

Oz-ozg‘ina bergan soyi gul atri nasim,
Bulbuldek ishim nolavu faryod o‘lg‘on.

N. so‘zi b-n asosdosh nolon va nolanda so‘zlari nola qiluvchi ma’nosini anglatadi:

Zaif jismni to tig‘i yordi – nolonmen,
Nechaki chiqmas uni, necha chok bo‘lsa qamish.

Navoiy g‘azallari maqta’sida uchrovchi N. shoirning holatini, uning shaxsiyatini gavdalantiradi. Navoiy N.si pinhon ekanligi ta’kidlanadi. Ruhni yangi mayga o‘xshatib, nolasining pinhon ekanligiga urg‘u beradi.

La’li hajrida Navoiy qoni qaynar demangiz,
Yangi maydek ruhidurkim, nolayi pinhoni bor.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011.*

Z.R.

NOMIY (t.y. va v.y.n., Iroq) – shoir. Iroqning Shamoxani qishlog‘idan bo‘lib, ilm tahsili u-n Hirotga kelgan. Jomiy va Navoiy adabiy maktabidan bahramand bo‘lgan. Kitob ko‘chirish b-n faqirona tirikchilik o‘tkazgan. G‘azal va qit’a yozishda mashhur bo‘lgan. Xalqona ohangdagi sodda til va ravon uslubdagi she’rlaridan namunalar turli tazkira va bayozlarda keltirilgan. M-n:

Zoti man majmo‘ayi fazl-u kamoli olam ast,
Gar xaridore naboshad, az kujo Nomiy shavam?
Kull giri xub medonam vale kulli kujost,
Kay Alishere biyoyad, to ki man Jomiy shavam?

Tarj.: Men dunyodagi insonga xos barcha fazl-u kamol sohibi bo‘laman. Lekin xaridorim

bo‘lmagach, qanday qilib Nomiy bo‘lay (nomim chiqsin)? Men komil insonlarga munosib bo‘lishni juda yaxshi bilaman, lekin qo‘limdan tutib, qo‘llab-quvvatlaydigan bir komil zot qani? Mening Jomiy maqomiga ko‘tarilishim uchun N.dek homiy zot topilarmikan?

Ad.: *Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 2. – Душанбе, 1989.*

E.O., Sh.R.

NOMIY SABZAVORIY (XV asr) – shoir. Jomiy va Navoiyning zamondoshlaridan bo‘lib, yaxshi tab’i bor edi. Ko‘plab she’rlar yozgan. Qasida, g‘azal, ruboiy, qit’a kabi janrlarda mahorat b-n qalam tebratgan. Xoqoniy Shirvoniyning mashhur qasidalaridan biriga javob yozgan. Insho va xattotlikda ham mohir bo‘lgan. Navoiy, Xoja Dehdor, Shayx Abdullo Devona kabi zamona fozillari b-n yaqin munosabatda edi. Jumladan, quyidagi matla’ni Xoja Dehdorga bag‘ishlagan:

Lofad ba xatat nofa zihi besar-u poyi,
G‘ammozi siyah botini mo dar ba xatoyi.

Tarj.: Bu qanday adabsizlikki, mushk sening xating b-n o‘xshashlik da’vosini qiladi. Bu borada bizning g‘iybat-u tuhmatga to‘la qora ko‘nglimiz yanglishgan ko‘rinadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 2. – Душанбе, 1989.*

E.O.

NOSIR BUXORIY (1300, Buxoro − 1371, Tehron) − forsiygo‘y shoir. Shohdarvesh va Darvesh Nosir nomlari b-n mashhur bo‘lgan. Buxoroda tahsil olib, Xuroson, Ozarbayjon va Iroqqa safar qilgan. Taniqli fors-tojik shoiri Salmon Sovajiy b-n do‘stona munosabatda bo‘lgan. Tazkiralarda ularning o‘zaro mushoiralari keltiriladi. Hofiz Sheroziyga ergashib, iroqiy uslubda g‘azallar bitgan. Tojikiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abdug‘ani Mirzoyev nomidagi Sharqshunoslik institutida shoir kulliyotining mukammal nusxasi saqlanadi. U taxminan 7 ming bayt hajmidagi qasida-yu g‘azallar hamda orifona mazmundagi “Hidoyatnoma” masnaviysini o‘z ichiga oladi.

N. esa “M.Q.” asarida uni she’rlarida majoziy yo‘nalish ustun bo‘lgan shoirlar jumlasiga kiritadi. S.Qurbonovning yozishicha, uning “ijodida dunyo go‘zalligi ilohiy husnning in’ikosi yoki soyasi sifatida talqin etiladi” va u “vahdat ul-vujud” falsafiy oqimi pozitsiyasida mahkam turadi. Uning u-n olam va odam, ya’ni ruh va jism, vujud va ma’ni birgadir”.

S.Qurbonov, S.S.Buxoriy kabi olimlar N.B. hayoti va ijodi bo‘yicha tadqiqotlar olib borganlar. S.Vohidov shoir g‘azallaridan, E.Ochilov ruboiylaridan namunalar tarjima qilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар бўстони. – Т., 1981; Фахриддин Али Сафий. Латофатнома (Латойиф ут-тавойиф); Ҳожи Сотимхон Хожа Инъом тарж. – Т., 1996; Қурбонов С. Замонасининг фозил фарзанди // “Сино” журнали, 25-сон (2007, Баҳор); Абдураҳмони Жомий. Баҳористон; Бухорий С.С. Икки юз етмиш етти пир. Бухоро, 2006; Носир Бухорий. Рубоийлар // Донишмандлар туҳфаси. – Т., 2009.*

E.O.

NOSIR XISRAV (to‘liq ismi Abumuiniddin Nosir Xisrav al-Qubodiyoniy (1004, Qubodiyon − 1088, Badaxshon) − mashhur fors-tojik shoiri, adibi, mutafakkiri. O‘ziga to‘q xonadonda dunyoga kelib, boshlang‘ich ma’lumotni o‘z qishlog‘ida oladi. Keyin ilmini kamolga yetkazish u-n Marv va Balx madrasalarida tahsilni

davom ettiradi. Matematika, astronomiya, falsafa, tarix, adabiyot, kalom, musiqa, geografiya, tib va boshqa fanlarda o‘z davrining yagonasi bo‘lgan qomusiy olim bo‘lib yetishadi. She’rlaridan birida uning o‘zi bu dunyoda men ozmi-ko‘pmi egallamagan ilm qolgan emas, deb e’tirof etadi. Bir muddat naqqoshlik ham qilgan. U Ibn Sino, Forobiy asarlarini chuqur o‘zlashtirgan, Suqrot, Aflotun, Arastu kabi qadim dunyo faylasuflari ta’limotidan ham xabardor bo‘lgan.

N.X. Mahmud G‘aznaviy va uning o‘g‘li Mas’ud saroyida mirzalik qilgan, soliq mahkamasini boshqargan. Saljuqiy hukmdorlardan birining saroyida ham bir muddat ishlagan. U 40 yoshida safarga otlanib, yetti yil (1045–1052) davomida Eron, Ozarbayjon, Armaniston, Suriya, Misr, Arabiston, Iroq mamlakatlarini kezib chiqadi. Sayohatlari vaqtida adolatli hukmdorlar tufayli osoyishta va farovon shaharlarni ko‘rgan N.X. keyinchalik o‘z asarlari orqali odil podshoh g‘oyasini ilgari suradi. Abulhasan Xaraqoniy suhbatiga yetishgan. Bir muddat uning xonaqohida yashab, riyozat chekadi va botinini poklash b-n mashg‘ul bo‘ladi.

N.X. maqbarasi shimoliy Afg‘onistondagi Ko‘kcha daryosining o‘ng qirg‘og‘ida − tog‘ tepasida joylashgan Hazrat Sayyid qishlog‘ida. Ulug‘ shoir va mutafakkir maqbarasi asrlar davomida ziyoratgohlardan biri bo‘lib, mahalliy aholi tomonidan “Mozori Shoh Nosir” deb ataladi. Tojikistondagi ko‘plab maktab, ko‘cha, mahalla va jamoa xo‘jaliklari buyuk alloma nomi b-n yuritiladi. “Safarnoma”, “Zod ul-musofirin” (“Musofirlarning yo‘l ozuqalari”), “Vajhi din” (“Din chehrasi”), “Saodatnoma”, “Ro‘shnoyinoma” (Ma’rifat kitobi”), “Xon ul-ixvon” (“Do‘stlar dasturxoni”), “Bo‘ston ul-uqul” (“Aqllar bo‘stoni”), “Dalil ul-mutahayyirin” (“Hayratda qolganlar dalili”), “Jome’ ul-hikmatayn” (“Hikmatlar yig‘indisi”), “Risola dar javobi 99 savoli falsafiy” (“99 falsafiy savolga javob risolasi”), “Kushoyish va rahoyish” (“Baxt va najot”) kabi ko‘plab she’riy va nasriy asarlar yaratgan. U fors-tojik va arab tillarida ikki devon ham tartib bergan bo‘lib, arab tilidagi devonining taqdiri hozirgacha noma’lum. Shoirning qasida, g‘azal, qit’a va ruboiylarni o‘z ichiga olgan 12 ming misradan iborat forsiy devoni esa Eronda bir necha marta chop etilgan.

Abdurahmon Jomiy ta’biri b-n aytganda, “she’r san’atida mohir va hikmat ilmida komil” bo‘lgan N.X. hayoti va ijodi asrlar davomida o‘zbek xalqi orasida ham mashhur bo‘lgan. Shoir-u olimlarimiz uning asarlaridan bahramand bo‘lganlar, ta’sirlanganlar, unga o‘z munosabatlarini bildirganlar. Chunonchi, N. “N.M.”da u haqda yozadi: “Bag‘oyat murtoz kishi ermish. Ko‘histon ahli boshtin-ayoq oning murididurlar va Shoh Nosir Xisrav bila ta’bir qilurlar. Zohir ulumin xeyli ko‘rgan ermish va botin ilmin dag‘i riyozat jihatidan hosil qilg‘ondur, ammo bu toifaning (ya’ni tasavvuf ahlining − E.O.) aning mazhabida ta’nlari bor va bu ta’n go‘yo “Ro‘shnoyinoma”sida mazkur bo‘lg‘on abyoti jihatidindurki, hukm mazhabi ravishida voqe’ bo‘lubdur”.

N.X. asarlari dunyoning ko‘plab tillariga tarjima qilingan. O‘zbekchaga uning bir qator she’rlari, “Saodatnoma” masnaviysidan parchalar va “Safarnoma” asari G‘.Karim tomonidan o‘girilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Абдураҳмон Жомий. Баҳористон (Ш.Шомуҳамедов тарж.). – Т., 1997; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 2. – Душанбе, 1989; Бертельс Е.Э. Насир-и Хосрав и исмаилизм. – М., 1959; Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар бўстони. – Т., 1981; Очилов Э. Носир Хисрав // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 6-жилд. – Т., 2003; Девони Носир Хисрав. – Теҳрон, 1367 (ҳ.-ш.); Носир Хисрав. Худо билан мунозара (Муинзода тарж.) // Тафаккур мевалари. – Т., 1960; “Саодатнома”-дан (Ш.Шомуҳамедов тарж.) // Инжулар уммони. – Т., 1988; Носир Хисрав. Гулчине аз девони ашъор. – С., 1957; Носир Хисрав. Са-*

фарнома. – Т., 2003; Носир Хисрав. Рубоийлар // Донишмандлар туҳфаси. – Т., 2009.

E.O.

NOSIROV Abdulla – (1899–1987, – Toshkent) manbashunos, tarjimon va mohir bibliograf olim. U otasi sahhof Muhammad Nosir va bobosi Ali Muhammaddan boshlang‘ich ta’lim va sahhoflikni o‘rganadi. N.A. Toshkentdagi Ko‘kaldosh va Beklarbegi madrasasida ta’lim olish jarayonida mudarris, shoir va xattot Sirojiddin Maxdum Sidqiy Mirzohid o‘g‘li Xondaliqiy ustozligida xattotlik san’atini va arab, fors tillarini o‘rganadi. Uning toshkentlik tarixchi Muhammadsolih Qoraxo‘ja o‘g‘lining “Tarixi jadidayi Toshkand” nomli qo‘lyozma asarini, Abdulla Qodiriyning iltimosiga ko‘ra, “O‘tgan kunlar” romanini chiroyli nasta’liq xatida ko‘chirgan. N.A. sharqning 241 olimi haqida hikoya qiluvchi “Blikot” (1920) va o‘zbek xalq topishmoqlarini 600 tasini to‘plagan (bu ikki asar ShQM. O‘zR FAShIda saqlanmoqda.), “Beruniy O‘rta Osiyoning buyuk olimi” (1950), “O‘rta Osiyolik qirq olim” (1961), “Toshkent tarixida ba’zi siymolar” (1983), “Forobiy va uning falsafiy asarlari” (1963), “Alisher Navoiy qo‘lyozma asarlari katalogi” (1970), “Ali” (1964), va “Ahmad Farg‘oniy” (1968) kabi risola va kitoblar mualliflaridan biri. Shuningdek, N.A. qo‘lyozma manbalardan Al-Xorazmiy, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, N. va boshqa shu kabi olim va shoirlarning hayoti va ijodiga hamda madaniyat tariximizga oid 13 ming varaqni tashkil etgan, 128 jildlik bibliografiya va ko‘rsatkichlar tuzgan.

Ad.: *Носиров А. Алишер Навоий қўлёзма асарлари каталоги. – Т., 1970.*

Muh.A.

NOSIROV Is’hoq (1947) – f.f.n., dotsent. 1980-y. “Majolis un-nafois leksikasi” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan. Olim tazkirada 2450 ot, 380 sifat, 200 fe’l, 80 ravish, 40 olmosh, 25 son, 20 bog‘lovchi ishlatilganini aniqlagan. Asardagi so‘zlar geneologik jihatdan uch qatlamdan iborat ekanligi ko‘rsatilgan: 1. Turkiy; 2. Arabiy 3. Forsiy. Turkiy so‘zlar 21 mavzu guruhiga bo‘lib o‘rganilgan: 1. Qonqardoshlik atamalari: aka, ota; 2. Tana a’zolari: bosh, oyoq, qo‘l; 3. Harbiy terminlar: tavochi, yurush; 4. Kiyim-kechak nomlari: bo‘rk, etak va boshqalar. Olim tillar bo‘yicha sinonimlarga e’tibor bergan: o‘zbekcha-o‘zbekcha: aytmoq-demoq; forscha-forscha: nola-faryod; arabcha-arabcha: tartib-qoida, g‘olib-mag‘lub, vasl-hijron kabi antonimlar tahlilga tortilgan. Tazkiradagi adabiyot, san’atga oid so‘zlar fors, din va davlat boshqaruviga oid so‘zlar arab tiliga xosligi ko‘rsatilgan. Ayrim turkiy so‘zlarning o‘zbek shevalarida ishlatilishiga e’tibor bergan. Bo‘rk Forishda, itmoq fe’li Qashqadaryoda, eltmoq Qo‘qonda ishlatilishi ko‘rsatilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Лексика “Маджолис ан-нафоис” Алишера Навои. Автореф.дисс. канд. филол. наук. – Т., 1982.*

E.U.

NOSIRXOJA VALADI MANSURXOJA – shoir va yozuvchi (XVIII asr oxiri XIX asr boshlari). Xorazmda yashab ijod etgan. Hayoti va ijodiy faoliyati haqida aniq ma’lumotlar mavjud emas. N.V.M. N.ning “X.” dostonlaridan ijodiy foydalanib, “Layli va Majnun” dostoni xalq variantini yaratgan. O‘z davrida bu qissa xalq orasida juda mashhur bo‘lgan. Buxoro va Xorazm xattotlari tomonidan qayta-qayta ko‘chirilib, ijodiy o‘zgartirishlar kiritilishi natijasida qissaning turli variantlari paydo bo‘lgan. O‘zR FAShI va Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyida qissaning bir qancha qo‘lyozma nusxalari mavjud. Qissa nasr va nazm aralash xalq kitobi uslubida ijod etilgan. Undagi arab podshohi Sayyid bani Omariyning farzandga zorligi, Qaysning tug‘ilishi, maktabga borishi, Laylini uchratishi va butun asar to‘qimasidagi voqealar rivoji “Layli va Majnun” syujetlari yo‘nalishida davom

etadi. Muallif qissaning badiiy til xususiyatlarini kuchaytirish, unga ko‘tarinki ruh bag‘ishlash maqsadida Majnunning bolaligiga g‘ayritabiiy xislatlarni yuklaydi. N. dostonida Laylining enagasi ularga sirdosh, ko‘makchi vazifasini bajarsa, qissada maktabdagi ustozi asar oxirigacha sevishganlarning sirdoshi, maslahatchisi sifatida ishtirok etadi. Asar Layli va Majnunning vafot etishi, Munkar-Nakirning she’riy yo‘sindagi savol-javobi va qahramonlarning jannatga yo‘l olishi b-n yakun topgan. Nasriy matnlar orasida berib borilgan g‘azallar qahramon ruhiyatini ochib berish, qissaning jozibador bo‘lishini ta’minlagan.

Ad.: *Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Носирхожа валади Мансурхожа. Лайли ва Мажнун. (Нашрга тайёрловчи К.Жўраев). 2014.*

O.T.

NOQIS (taxallusi; asl ismi-sharifi Abdulqodir Muhammadshokir o‘g‘li) (1860–1929, Kattaqo‘rg‘on) – shoir. Kattaqo‘rg‘ondagi Naqibxo‘ja va Buxorodagi Turg‘unjon va Mirarab madrasalarida tahsil olgan. 1895-y.da Kattaqo‘rg‘onga qaytib, Naqibxo‘ja madrasasida mudarrislik qilgan, dehqonchilik b-n shug‘ullangan. Sa’diy, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy kabi so‘z san’atkorlarini o‘ziga ustoz bilib, ulardan mahorat sabog‘ini o‘rgangan, g‘azallariga tatabbu’lar yozgan, taxmislar bog‘lagan. Ayniqsa, Muqimiy ijodidan ilhomlanib, g‘azallariga muxammaslar bitgan. 1880-y.dayoq iste’dodli shoir sifatida tanilgan. Zullisonayn shoir bo‘lib, forsiyda ham qalam tebratgan. 1905-y. dan e’tiboran she’rlarida ijtimoiy ruh kuchaygan. Jamiyatdagi qoloqlik, nodonlik, adolatsizliklarni tanqid qilib, erk va ma’rifatni ulug‘lab, she’rlar yozgan. Ijod namunalari ko‘plab bayozlarga kiritilgan (“Bayozi Mahdiy”, “Armug‘oni Xislat”, “Bayozi Miriy”, “Bayozi Jo‘rabek”, “Vasilayi jonon” va h.k.). “Devoni Noqis” O‘zR FA Sharqshunoslik institutida (inv. № 97), “Bayozi Noqis” Tojikiston FA sharqshunoslik institutida (inv. № 1005) saqlanadi. G‘azal va muxammaslari hofizlar tomonidan kuyga solinib, ijro etilgan (M-n, “Hajringda dard-u g‘am b-n hasratda dog‘-man...”). XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoroda yaratilgan tazkiralarda N. ijodiga yuqori baho berilgan.

Navoiyning qator g‘azallariga taxmis bog‘lagan. Jumladan, “Yuzung yonidakim bosh chekti har yondin muattar xat” misrasi b-n boshlanadigan g‘azaliga bog‘lagan taxmisidan bir band keltiramiz:

Karam bazmini har dam manga mu’tod etsang,
ey soqiy,
Xarob o‘lg‘an ko‘ngul mulkini obod etsang,
ey soqiy,
Agar bir may sunubon xotirim shod etsang,
ey soqiy,
Mani maxmurlig‘ ranjidin ozod etsang,
ey soqiy,
Yozarman garchi ilkim titramakdin kelsa
abtar xat.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Ноқис. Ғазаллар // Асрлар нидоси. – Т., 1982: Орзибеков Р. Абдулқодир Ноқис // XIX аср ўзбек адабиётига доир материаллар. – Самарқанд, 1985.*

E.O.

NURMUHAMMAD IBN MUS’HAFQULI XALIFA – shariat olimi, fozil va mudarris kishi bo‘lgan. Nasta’liq xatini yaxshi va chiroyli yozgan. “L.T.” va “M.Q.”ni Samarqandda 1234/1818–19-yy.da kitobat qilgan. Toshkent: O‘zR FAShI. Inv. № 1071. 111 varaq. Yirik nasta’liq xat.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. –Т.,1991. Собрание восточных рукописей академии наук Узбекистан. VII. – Т., 1964.*

Muh.A.

NURSAIDBEK (Amir Nursaid) (o‘limi 1468, Marv) – oliynasab turkiy beklardan. Otasi Shohmalikbek Amir Temurning lashkarboshilaridan bo‘lib, Shohrux mirzo hukmronligi davrida Ulug‘bekning amir ul-umarosi (1409–1411), so‘ngra Xorazm hokimi (1411–1426) bo‘lgan. N. ham otasi singari temuriy hukmdorlarga xizmat qilgan. Ulug‘bekning nabirasi Jo‘gi mirzo (Abdullatifning o‘g‘li) Sulton Abusaidga qarshi chiqqanda N. uni qo‘llab-quvvatlagan. Ular Turkiston, Toshkent, Sayram va Shohruxiyani egallab, Samarqandga hujum qilganlar. Sulton Abusaid Xurosondan ularga qarshi qo‘shin tortib kelgan. Jo‘gi mirzo va N. chekinib Shohruxiya qal’asida mustahkamlanib olganlar. Abusaid mirzo Shohruxiyani to‘rt oy qamal qilgan. Oxiri Xoja Ahror vositachiligida sulh tuzilgan va qal’adagilar taslim bo‘lganlar. N. afv etilib, Sulton Abusaid xizmatiga o‘tgan.

1468-y.da Husayn Boyqaro Xorazmga hujum qilganda Sulton Abusaid bir nechta beklarni Xorazmni mudofaa qilish u-n yuborgan. Ular orasida Nursaidbek ham bor edi. Bu beklar yetarli qarshilik ko‘rsata olmaganlari u-n Sulton Abusaid tomonidan jazoga tortilganlar, shu jumladan, N. Marvga olib kelingan va mol-mulki musodara qilinib qatl etilgan.

Ammo Muhammad Solih otasi – N.ni Marvda Husayn Boyqaro tomonidan qatl etilgani haqida yozadi. Navoiy N.ni yaxshi bilgan va o‘z asarlarida u haqda to‘xtalib o‘tgan. N. ijodkor sifatida “M.N.” tazkirasiga kiritilgan. Bu haqda shunday ma’lumotlar berilgan: “Nursaidbek – xorazmlig‘dur. Tab’ining ne miqdor quvvat va latofati bor erkanin she’ridin bilsa bo‘lur. Bu matla’ aningdurkim:

Moro dar in diyor tuyi dilnavoz-u bas,
Dorem az tu go‘shayi chashme niyoz-u bas.

Tarj.: Bu diyorda ko‘nglimizni oluvchi yolg‘iz o‘zingsan. Sendan bizga bir qiyo boqishingni o‘tinib so‘raymiz xolos.

Qabri Marvda Xoja Hamadoniy (q.s.) javoridadur”. N. haqida Navoiy tazkirasining beshinchi majlisida ham ma’lumotlar mavjud. Ushbu majlisga kiritilgan shoir Muhammad Solih zikrida Navoiy uning otasi N. haqida ham ayrim fikrlarni bildirib o‘tgan. Ulug‘ shoirning yozishicha, N. Chorjo‘y va Adoq navohiylarida ham hokimlik qilgan. Shuningdek, Navoiy uning Ulug‘bek mirzo, Sulton Abusaid va Jo‘gi mirzolar huzurida ulug‘ bek bo‘lganini qayd etgan, shaxsiyati haqida salbiy fikr bildirib: “Ammo bag‘oyat badfe’l va badxulq kishi erdi”, – deb yozgan.

N. nomi Alisher Navoiyning “Soqiynoma” asarida ham uchraydi. Ushbu asarning Vafoiyga (Ahmad Hojibekka) bag‘ishlangan qismida Navoiy dunyoning o‘tkinchiligi, qancha mashhur kishilar olamdan o‘tib ketgani haqida mulohaza yuritar ekan, shunday baytlarni bitadi:

Bilki olamda ne shah qoldi, ne bek,
Shohi mag‘furdeg-u beklaridek.

Qani Sulton Said-u xayli,
Barchasin yopdi ajalning zayli.

Qani Qanbar Ali-yu, qani Mazid?
Qani Sulton-u, qani Nuri Said ?!

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Абдураззоқ Самарқандий. Матлаъи саъдайн ва мажмайи баҳрайн. 2-жилд. – Т., 2008.*

Q.E., E.O.

NUH (a.s.) – Qur’oni Karimda 28 suraning 43 ta oyatida N. (a.s.) ismi va qissasi keltirilgan. Nasabi ba’zi manbalarda Nuh ibn Malik Manusalx ibn Idris deb kelsa, ba’zilarida Nuh ibn Lomak ibn Matlushloh ibn Axnux (Idris) deb beriladi. Odam (a.s.)ning vafotlaridan 126 (ba’zi rivoyatlarda 146) yil keyin Bobil (Iroq)ning hozirgi Kufa shahri joylashgan yerda dunyoga kelgan.

Navoiyning yozishicha “Nuh ibni Malik ibni Matushlax ibni Idris payg‘ambari mursaldur va Najiyulloh aning laqabidur”. Ba’zilar 40 da, ayrimlar 50 yoshdan keyin unga vahiy kelgan de-

yishgan. N. (a.s.) uzoq umr ko‘rgan payg‘ambarlardan hisoblanadi. Qur’oni Karimda “Nuh” surasi mavjud. N. (a.s.) zamonida buyuk To‘fon voqeasi sodir bo‘lgan. Navoiyning “M.L.” asarida yozilishicha, bugungi bashariyat asli N. (a.s.) ning uch o‘g‘li – Som, Hom va Yofasning avlodlaridir. Shu sababdan N. (a.s.)ni “Odami soniy” – Ikkinchi Odam ham deyishadi. “Qisasi Rabg‘uziy”da uning asl ismi Yashkir ekanligi va “navha birla yig‘lamish u-n Nuh atandi” deya keltirilgan. Uning bunday yig‘lab iltijo qilishiga esa Iblisning “Sening badduoying tufayli barcha qavming qirilib, do‘zaxda menga yo‘ldosh bo‘ldilar”, degan gapi edi. Bu gapni eshitgan N. (a.s.) “Agar sabr qilsam, balki qavmim musulmon bo‘larmidi”, deya navhalar tortib yig‘ladi. N. (a.s.) o‘z qavmi ichida uzoq umr ko‘rdi, ya’ni, 950 yil yashaydi (Ankabut surasi, 14-oyat).

Kun tug‘ardin kun botarg‘a Nuh yalavoch da’vati,
Ellik o‘ksuk ming yil erdi ul risolat muddati.

U turli ilohlarga, butlarga sig‘ingan, fitna-fasodga berilgan, ayniqsa, bachchavozlikka odatlangan qavmini to‘g‘ri yo‘lga boshlab, Allohdan qo‘rqishga, faqat Unga ibodat qilishga da’vat etgan. Lekin qavmi uzoq yillar davomida uning so‘ziga kirmay masxara qilgan. Hatto N. (a.s.)ning xotini va Kan’on degan o‘g‘li ham uning so‘ziga kirmagan. Shunda N. (a.s.) Allohdan yordam berishni, kofirlarni jazolashni so‘radi (Shuaro surasi, 118-119-oyatlar). Alloh uning iltijosini qabul etib, N. (a.s.)ga kema yasashni va barcha jonivorlardan bir juftdan olib kemaga joylashtirishni buyuradi. Keyin osmondan juda ko‘p yomg‘ir yog‘diradi, yerning hamma tomonidan ham suv chiqartiradi. Osmon suvi b-n yer suvi qo‘shilib ulkan to‘fon paydo bo‘ladi. Navoiy yozishicha, suv avval N. (a.s.) tandiridin qaynab chiqqan va olti oygacha bu hol davom etgan. Tamomi olamni suv bosgan. Kema uch qavat bo‘lgan. Birinchi qavatda vahshiy hayvonlar, darrandalar va chorpoylar bo‘lgan, ikkinchi qavatda parrandalar, uchinchi qavatda odamlar joylashgan. To‘fonda barcha kofirlar halok bo‘lgan, faqat kemadagilar sog‘ qolgan. To‘fon boshlanishidan oldin N. (a.s.) ning Kan’on degan o‘g‘li kemaga chiqmagan, N. (a.s.)ning otalik mehri qo‘zg‘ab, o‘g‘lini kemaga chiqishga undagan. Allohga kufr keltirgan farzand esa, otasiga rad javob aytib, imon keltirishdan bosh tortgan va tog‘ga chiqib jon saqlamoqchi bo‘lgan, lekin u tezda suvga g‘arq bo‘lib ketgan. (Hud, 45-47-oyatlar). Suv pasaygandan keyin kema Judiy tog‘i ustiga kelib to‘xtaydi. Yer to‘fon suvini yutib bitirgach, Alloh N. (a.s.)ni kemadan yerga tushishga buyuradi. N. (a.s.) va unga imon keltirgan 80 kishi Musil degan yurt zaminiga tushishgan.

Manbalarning guvohlik berishicha, to‘fondan keyin 80 ta kishi qoladi. Biroq, dengiz kasali tufayli mazkur 80 ta kishidan faqatgina N. (a.s.), uning uch o‘g‘li (Som, Hom va Yofas) va kelinlari tirik qoladi. Keyingi odamzod nasli shulardan tarqagan. Navoiyning ta’kidlashicha, N. (a.s.) Turon zaminni Yofasga, Eronni Somga va Hindistonni Homga beradi. Bu mamlakatlar xalqlari bu uchalasining naslidan tarqalgan. Shuning u-n ham “Yofasni Abut-Turk va Somni Abul-Ajam va Homni Abul-Hind debdurlar”. Va Homning rangi qora bo‘lgani u-n hind xalqi qoradir. Aytishlaricha, Homning rangi shuning u-n ham qora bo‘lganki, N. (a.s.) uxlab qolganida avrati ochilib qolgan va Hom ko‘rib kulgan. Yofas va Somlar esa bundan qaytarib, ustini yopib qo‘yganlar. N. (a.s.) voqeadan xabardor bo‘lib, Homni duoyi bad qilgan. Shuning u-n ham rangi qorayib naslidan payg‘ambarlik kesilgan. N. (a.s.) kemaga chiqishda, Odam (a.s.) qabridan suyaklarini olib o‘zi b-n kemaga olib kirgan. Kemadan chiqqandan keyin ba’zilarning qavliga ko‘ra esa, Madyan yerida, boshqalarning fikriga ko‘ra Najafda dafn qilgan deyishadi.

Navoiy she’riyatida N. to‘foni, N. umri, N. kemasi, N. qissasi, ikkinchi Odam kabi tushunchalar talmeh sifatida keltiriladi. Shoir N. qissasiga aloqador voqea va timsollardan oshiqning holatlari, ko‘z yoshlari, umrning, dunyoning bebaqoligi va h.k.lar haqida ta’sirli baytlar yaratadi.

Ey ko‘ngul, naqdi hayoting qil fano yo‘lida sarf,
Hayf erur gar bo‘lsa umri Nuh uchun sayfalg‘udek.

Yoki:

Ey ko‘ngul, olam buzarda qay biri ortug‘ ekin,
Nuh to‘fonimu ashkim selining tug‘yonimu?

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Носируддин Бурҳониддин Рабғузий. Қиссаси Рабғузий. – Т., 2009; Пайғамбарлар тарихи (Исломият тарихи). – Т., 2014; Муҳаммад Саййид Тантовий. Пайғамбарлар тарихи (Қуръони Карим қиссалари). I-II. – Т., 2014; Қуръон қиссалари// Пайғамбарлар қиссаси. – Т., 2013.*

S.R., E.O.

NO‘MON BINNI MANZAR (Munzar) – Arab hukmdorlaridan. Milodiy V asrning I yarmida Yamanda podshohlik qilgan.

Navoiy “T.M.A.” asarining Yazdijird binni Bahrom va Bahrom binni Yazdijurdga bag‘ishlangan fasllarida N.B.M.ni tilga olgan. Yazdijird binni Bahrom zikrida Yazdijirdning o‘g‘il ko‘rgani va unga Bahrom deb deb ot qo‘ygani hamda uni tarbiya qilish u-n arab podshohi N.B.M.ga topshirgani hikoya qilinadi. N.B.M. Bahromni Kufa shahar yaqinidagi Xiyara degan joyda tarbiyalagan. Bu yer o‘zining havosining sofligi b-n mashhur edi. Bahrom binni Yazdijird (Bahrom go‘r) zikrida uning otasi Yazdijird vafot etgandan so‘ng a’yonlar Ardasher naslidan Kisro degan kishini taxtga o‘tqazganliklari, Bahrom bu xabarni eshitgach, N.B.M. b-n birga otasining taxtini egallash maqsadida kelgani haqida ma’lumot beradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; История древнего Востока. Всемирная история. – Минск, 2008; История древнего мира. Древний Восток. – Минск-Москва, 2000.*

Q.E.

NO‘SHIRAVON (Anushervon) – Sosoniylar sulolasiga mansub hukmdor. Qadimgi Eronda 531-y.dan 579-y.gacha hukmronlik qilgan. Yevropa tarixchilari uni Xosrav I deb ataydilar. Sharq tarixnavisligi an’anasida u odil hukmdor sifatida tasvirlanadi. Uning nomi sharq mumtoz badiiy adabiyotida adolat timsoliga aylangan. N. obrazi Navoiy asarlarida ham mavjud. Jumladan, “H.A.”ning 33-bobi N. haqidagi hikoyadan iborat. (Q.: “No‘shiravonning hayo bog‘ida nargis ko‘zidin ko‘zining nargisi uyolib, nargis ko‘zluk gulruxidin kanor istamay kanora istagani”).

“S.I.” dostonining 14-bobida N. sosoniylar sulolasiga mansub hukmdorlar qatorida No‘shiravonni ham tilga oladi va uning taxtga o‘tirib, adolat b-n hukmronlik qilganini ta’kidlaydi:

Chu taxt oldi No‘shiravoni Qubod,
Ul etti bino dahr aro adl-u dod.

Navoiy Anushervon haqida “T.M.A.” asarida ham to‘xtalib o‘tgan. Asarning ushbu qismi ikki qatlamdan iborat deyish mumkin. Birinchi qatlam N.ning tarixiy shaxs, hukmdor sifatida faoliyatini yoritish, u haqdagi ma’lumotlardan iborat. Bunda Navoiyning yozganlari tarixiy haqiqatga mos keladi. Jumladan, u N.ning hukmdorlik muddati ba’zi manbalarda qirq yil, ba’zilarida qirq yetti yil-u yetti oy deb ko‘rsatilganini qayd etadi. Hozirgi ma’lumotlar ikkinchi fikrning to‘g‘riligini ko‘rsatadi. Shuningdek, Navoiy N. ning Mazdak va uning tarafdorlariga qarshi olib borgan kurashi, Rum qaysari (Vizantiya imperatori) b-n nizolashgani va unga qarshi qo‘shin tortgani singari ma’lumotlarni ham bayon qiladiki, bular uning tarixiy shaxs, hukmdor sifatidagi faoliyatida chindan ham amalga oshirilgan va tarixiy asosga ega.

Ikkinchi qatlam esa yuqorida aytib o‘tilgan N.ning adolat timsoliga aylangan obrazi b-n

bog‘liq. Bu o‘rinda ikki hikoya keltirilgan va har ikkisida ham N. adolatli, dono hukmdor qiyofasida namoyon bo‘ladi. Birinchisida bir kishining boshqa bir odamdan bog‘ sotib olgani va u yerdan xazina topgani, xazinani bog‘ning oldingi egasiga bermoqchi bo‘lgani hikoya qilinadi. Lekin bog‘ning sobiq egasi uni o‘ziga tegishli emas, deb hisoblaydi va olmaydi. Ular N. huzuriga boradilar va podshoh ularning o‘g‘il-qizlari haqida surishtiradi. Birining o‘g‘li, ikkinchisining qizi borligini bilgach, ularni uylantirib qo‘yish va xazinani ana shu yosh oilaga berish haqida hukm chiqaradi.

Ikkinchi hikoyada bayon qilinishicha, N. yo‘lda ketayotib, bir yerga tushadi va kabob pishirishni buyuradi. Ularda tuz yo‘q edi. Podshoh o‘sha atrofda joylashgan qishloqdan tuz keltirishni buyuradi va uni, albatta, pulga sotib olishni tayinlaydi. Uning a’yonlari “bu tuz hech qancha turmaydi-ku!” – deydilar. N. ularga javoban podshoh arzimagan narsa u-n yomon rasm – odatni qilmasligi kerakligini aytadi va ana shunday kichik arzimas ishlar asta-sekin avj olib ketishi, oqibatda, yomon qoidalar va udumlarning joriy bo‘lishi mumkinligini uqtiradi.

Navoiyning mahorati shundaki, xoh nasriy, xoh she’riy asarlarida adolat, adl haqida fikr yuritar ekan, talmeh san’ati yordamida bu obrazga ishora qiladi. N. rahnamoligida faoliyat ko‘rsatgan Hirot saroy kutubxonasida tayyorlangan Koshifiyning “Axloqiy Muhsiniy” asarining Adolat bayonida nomli 15-bobida ham N. odil obrazi va u b-n bog‘liq rivoyatlar keltirilgan.

Umuman, Navoiy, bir tomondan, tarixiy shaxs bo‘lgan N. haqidagi ma’lumotlardan, ikkinchi tomondan, uning sharq adabiyotiga adolat ramziga aylanib ketishi b-n bog‘liq rivoyat va hikoyatlardan yaxshi xabardor bo‘lgan va o‘z asarlarida foydalangan.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Кошифий. Ахлоқий Муҳсиний (Яхши хулқлар). – Т., 2010.*

Q.E., B.R.

“NO‘SHIRAVONNING hayo bog‘ida nargis ko‘zidan nargisi uyolib, nargis ko‘zlik guruxidin kanor istamay, kanora istagani” – “H.A.” dostonidagi oltinchi maqolatga ilova sifatida keltirilgan hikoyat. Dostonning mazkur maqolatida N.ning odob, hayo va xoksorlik haqidagi qarashlari o‘z ifodasini topgan. Bobning sarlavhasida shoir adabni baxtiyorlik kaliti, eng ko‘p qadrlanadigan insoniy fazilat, hayo b-n xushtavozelikni odobning asosiy shartlaridan deb ta’kidlagan. N.ning talqiniga ko‘ra, insonga sharaf keltiruvchi narsa mol-dunyo, mansab yo nasl-nasab emas, balki insonni jamiyatning gultojiga aylantiruvchi uning odobidir:

Elga sharaf bo‘lmadi joh-u nasab,
Lek sharaf keldi hayovu adab.

Anushervon odil haqidagi hikoyat mana shu fikrlarni xulosalaydi. Unda Anushervonning hali shoh bo‘lmagan paytida bir kanizakka oshiq bo‘lib, bog‘da unga qo‘l uzatgani, ammo ochilgan nargis gulini ko‘rgach, qilmishidan uyalgani tasvirlangan. N. bu orqali hayo va odob shoh-u gado u-n lozim bo‘lgan insoniy fazilat ekanini ta’kidlagan.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011.*

M.A.

O

OBI HAYOT (f-ar.) – tiriklik suvi, hayot baxsh etuvchi suv, jon suvi, ichganlarga abadiy hayot ulashuvchi ilohiy chashma. Suvi yumshoq va mayin, shuningdek, sovuq, shaffofdek toza va oppoq ekanligi haqida ma'lumot berilgan. Rivoyatlarga ko'ra, Iskandar Zulqarnayn o'z qo'shini b-n kichikroq bir shaharda dam olish maqsadida to'xtabdi. Atrofdagi gap-so'zlarga quloq tutsa, shahardan biroz ilgari yurilgan joyda bir dengiz bor emish. Dengizdan kechib o'tgan kishining 3 oy davom etuvchi zulmat o'lkasiga yetishi va O.H., ya'ni mangu barhayotlik suviga erishishi Iskandarni hayratga solibdi. Qiziqishi ustun kelgan Iskandar vaziri Xizr va Ilyosni o'ziga hamroh qilib, yo'lga chiqibdi. Yo'lni yoritish maqsadida shoh ikkita chiroq (yog'du taratuvchi bayroq – M.A.) olibdi. Ularning birini Xizr va Ilyosga berib, obi hayotni topganda xabarlashish sharti b-n ayrilishibdi. Uzoq kezib yurishlardan so'ng Xizr va Ilyos charchab, bir chashma etagida o'tirib, qorinlarini to'yg'azib olmoqchi bo'lishibdi. Xizr yonidan o'zi b-n olib kelgan pishirilgan baliqlarni chiqaribdi. Chashmada qo'llarini yuvar ekan, bir necha tomchi suv baliqlarga ham tegibdi. Baliqlar shu ondayoq tirilib, suvga sakrab tushgan emish. Xizr tushunibdiki, bu – O.H. suvi. Ilyos ikkalasi suvdan qonib-qonib ichishibdi. Biroq ularga ilohiy bir da'vat etibdiki, chashmaning qudratidan Iskandar sira ham ogoh bo'lmasin. Shu tariqa, O.H. siridan Iskandar xabar topa olmagan ekan. Boshqa bir rivoyatda aytilishicha, Xizr va Ilyos Iskandarga ham bu haqda xabar berish u-n o'rinlaridan qo'zg'aladilar, ammo chashmani takror topishning iloji bo'lmaydi.

Xizr va Ilyos umrboqiylik suvini totgan payg'ambarlar sifatida ulug'lanishi shundan. Qiyomatga qadar Xizr dengizda, Ilyos quruqlikda mushkul vaziyatda qolganlarga hamisha yordam qo'lini cho'zar emish. Ular har yili 6 may kuni Iskandar devori yonida uchrashib, Ka'baga – Haj ziyoratiga yo'l olish oldidan bu yilgi qiladigan ishlarini maslahatlashib olishar ekan. Shuningdek, O.H. haqida ayrim tarixiy manbalarda ham ma'lumotlar uchraydi. Tabariyga ko'ra, u topilgan joy Ozarbayjonning shimoliy hududlarida joylashgan bo'lgan. Ibrohim Haqqul esa O.H. suvi chashmasining manzilini Istanbuldan 6 oylik masofa uzoqlikdagi Shimoliy Qutbda deb ko'rsatadi.

Tiriklik suvi b-n bog'liq xalq inonchlari xalq og'zaki ijodida, chunonchi, "Go'ro'g'li" turkumidagi dostonlarda ham uchraydi. Go'ro'g'li o'zi ovlagan qushni bir ko'lda yuvmoqchi bo'lsa, suv tegishi b-n qush birdan jonlanib, yana uchib ketibdi. Bu haqda Go'ro'g'li otasiga aytib, ko'l turgan yerga qaytib kelsa, u mingta mayda ko'lmaklarga bo'linib ketgan emish.

O.H. tushunchasi mumtoz adabiyotda ham tiriklik suvi, hayvon suvi, obi zindagoniy, Xizr suvi, jon suvi, hayot suvi kabi bir qator sifatlar b-n yuritiladi. Tasavvufda yuqoridagi tushunchalar ilohiy ishq mazmunini ifoda etadi. U murshidi komilning hayvoniy sifatlardan hali to'la uzilmagan sodiq muriddagi chin insoniy tuyg'ularni uyg'otuvchi ilohiy so'zlari hamdir. Shuningdek, O.H. deganda ma'naviy nash'a, ishq va irfon ham ko'zda tutiladi. Mumtoz she'riyatda ma'shuqaning jonbaxsh nafasi, donishmand pirning purhikmat so'zlari, nasihati hamda yor b-n suhbat onlari ham O.H. istilohi orqali ifoda etiladi. O.H. ishq va muhabbat chashmasidan qaynab chiqqan haqiqiy visol sharbatiki, undan totgan oshiq abadiy boqiylikka erishadi, degan qarash-

lar ham bo‘lgan. Jumladan, N. she’riyatida ham O.H. mana shunday mazmunlarni ifoda etadi:

Bu o‘lganlarga umri Xizr bergay, gar yana nogah,
Masihim obi hayvon yanglig‘ etsa bir guzor anda.

Tiyra kulbamga kirib, jono, o‘lumdin ber najot,
Zulmat ichra Xizrg‘a ul nav’kim obi hayot.

Soqiyo, hayvon suyin mamzuj qilsang ichmagay,
Gar Navoiy topmasa may ichra la’ling javharin.

Gar xarobot ichra mumkindur sumurmak
bir qadah,
Xizr agar o‘ltursa borman chashmayi hayvon sari.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Ҳаққул И. Тасаввуф ва шеърият. – Т., 1991; Комилов Н. Тасаввуф. – Т., 2011; Искандар Пала. Муттоз шеърият қомусий сўзлиги. – Истанбул, 2004; Деҳхудо. Луғатнома. – Теҳрон, 1993–1994. Жилди VIII.*

M.A.



OGAHIY (To‘liq ismi: Muhamadrizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy) (1809–1874, Xiva) – mutafakkir shoir, yetuk muarrix, zabardast mutarjim. Xiva shahri yaqinidagi Qiyot qishlog‘ida mirob xonadonida dunyoga keladi. “Ta’viz ul-oshiqin” devoni debochasida ma’lumot berishicha, yuz urug‘ining nufuzli namoyandalari va yetakchilaridan bo‘lgan ota-bobolari Xorazm xonlarining yuksak martabali amaldorlari sirasigaga kirib, xonlikning oliy mansablaridan biri bo‘lmish miroblikni meros qilib olganlar. Lekin O.ning otasi Erniyozbek ma’muriy lavozimda ishlamagan. Bu mansab bobosi Avaz mirobdan amakisi – mashhur shoir va muarrix Shermuhammad Munisga o‘tadi. Erniyozbek Munisning kichik inisi edi. Miroblar mamlakatning sug‘orish tizimi, sug‘orish inshootlarini barpo etish va ta’mirlash b-n shug‘ullanibgina qolmay, xonning turli harbiy yurishlari va shikorlarida unga hamrohlik qilishgan. Bosh mirob esa, asosan, xonning yonida yurgan. Uch yoshida otasidan yetim qolgan Muhammad Rizo uning qo‘lida tarbiyalanadi.

Uzoq yillar tinimsiz zahmat chekib, ko‘plab durdona asarlar yaratadi hamda 65 yoshida vafot etib, o‘zi tug‘ilgan Qiyot qishlog‘ida dafn etiladi.

O.ning nazmiy merosini o‘zida jamlagan “Ta’viz ul-oshiqin” (“Oshiqlar tumori”) devoni hozirgi hisobga ko‘ra 447 g‘azal, 3 mustazod, 90 muxammas, 5 musaddas, 24 murabba’, 3 musamman, 4 tarje’band, 31 qit’a, 80 ruboiy, 10 tuyuq, 1 mulamma, 4 chiston, 80 muammo, 5 masnaviy, 1 bahri tavil, 1 musoviy ut-tarafayn, 2 marsiya, 2 fard, 1 soqiynomayi murabba’, 1 oshiq va ma’shuq savol javobi, 7 qasida – jami 18 ming misra she’rni o‘z ichiga oladi. Unga “Ash’ori forsiy” nomi b-n shoirning forsiy tildagi 1300 misradan ortiq she’rlari ham ilova qilingan bo‘lib, 24 g‘azal, 5 muxammas, 1 musamman, 1 munojot, 29 ta’rixdan iborat. Ularning bir qismi taniqli shoir va tarjimon M.Abdulhakim tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan.

O. ijodiga N.ning ta’siri katta. U o‘zining bu buyuk salafidan bir umr o‘rgandi, undan ta’sirlandi, unga ergashdi, g‘azallariga tatabbu’lar yozdi, muxammaslar bog‘ladi. Jumladan, shoirning 90 muxammasidan 30 dan ortig‘i N., qolganlari esa Jomiy, Sa’diy, Fuzuliy, Komron, Amiriy, Bedil, Ravnaq, Munis, G‘oziy, Rojiy, Feruz va boshqalarning g‘azallariga bog‘langan.

Ogahiy, kim topqay erdi sozi nazmingdin navo,
Bahra gar yo‘qtur Navoiyning navosidin sango, –

deb yozadi bu haqda shoirning o‘zi.

N. ijodi O. u-n muazzam ijodiy darsxona, ulkan mahorat maktabi bo‘lgan. U bu maktabda bir umr saboq oldi – qalamini charxladi, mahoratini oshirdi. O. buyuk salafining “Bo‘lma-

sa-bo‘lmasun, netay”, “O‘zgacha”, “Maxsus”, “Arzimas”, “Hanuz”, “Yigit”, “Ayt”, “Aylab”, “Ango”, “Ollida”, “Judo”, “Ekin Oyo”, “Bo‘ldi tut”, “Paydo”, “Bas”, “Xos”, “Shart”, “Ey ko‘ngul” kabi o‘nlab g‘azallariga shaklan go‘zal, badiiy barkamol tatabbu’lar bitgan. U ba’zida ayni vazn, qofiya va radifning o‘zida tatabbu’ qilsa, ba’zida vaznni, ba’zida qofiya tartibini o‘zgartiradi, lekin radif saqlanadi. Bunday ijodiy o‘zgarishlar esa g‘azallarning o‘ziga xosligi va originalligini ta’minlaydi. Jumladan, salafining “bo‘lmasa-bo‘lmasun, netay” radifli g‘azaliga nihoyatda go‘zal tatabbu’ qilgan. G‘azal 7 baytdan iborat bo‘lsa, tatabbu’ 2 bayt ziyoda, ya’ni – 9 bayt. G‘azal ham, tatabbu’ ham rajazi musammani matviyi maxbun (muftailun mafoilun muftailun mafoilun (– V V – \ V – V – / – V V – \ V – V –) vaznida. Radif aynan saqlangan. Qofiya tartibi ham bir xil (N.da: chora, shumora, kanora, istixora, nazzora, sharora, oshkora, chora. O.da: kanora, shumora, nazora, chora, sharora, ishora, bora-bora, qora, sitora, kanora). N. g‘azalida 7 ta, O.nikida esa 9 ta qofiya qo‘llangan. Tatabbu’da g‘azaldagi 5 ta qofiya takrorlangan bo‘lsa (chora, shumora, kanora, nazzora, sharora), 4 tasi yangi (ishora, bora-bora, qora, sitora). G‘azalning ilk misrasida qofiyani boshlab bergan “chora” so‘zi oxirgi misrada takrorlangan bo‘lsa, tatabbu’ning birinchi qofiyasi bo‘lmish “kanora” so‘zi ham so‘nggi misrada qayta keladi. Aslida g‘azalda ham, tatabbu’da ham ilk misra oxirida takrorlanib kelgan va bu ilmi bade’da radd ul-matla’ san’ati deb yuritiladi. O‘quvchi diqqatini asarda ifodalangan asosiy nuqtaga takror tortishdan iborat mazkur san’at she’r kompozitsiyasida muhim o‘rin tutadi. Ko‘rinadiki, O. o‘z tatabbu’sida hatto mazkur san’atni ham saqlab qolgan.

N.:

Gar alamimg‘a chora yo‘q,
bo‘lmasa-bo‘lmasun, netay,
Gar g‘amima shumora yo‘q,
bo‘lmasa-bo‘lmasun, netay.

O.:

Ashkima gar kanora yo‘q,
bo‘lmasa-bo‘lmasun, netay,
Ohima ham shumora yo‘q,
bo‘lmasa-bo‘lmasun, netay.

O.ning N. g‘azallariga tatabbu’lari ta’sir va ilhom samarasi bo‘lishiga qaramay, ular shunchaki izdoshlik va taqlid doirasida qolib ketmay, ularning har biri o‘ziga xos original g‘azallar darajasiga ko‘tarilgan. Chunki u tatabbu’ni o‘zaro ijodiy musobaqa, g‘azal muallifi “panjasiga panja” urish deb tushunib, g‘azal asosida g‘azal yaratishga harakat qilgan va hamisha buning uddasidan chiqqan.

O.ning qator she’rlari bevosita emas, bilvosita ta’sir mahsuli. “O‘t”, “Aylab”, “Avvalg‘idek” radifli, “Xushdur bahor mavsimining ayshi chog‘ida”, “Navbahor ayyomi har kim bo‘lsa aysh-u bog‘siz”, “Ey xush ul kunlarki, maqsad gavharig‘a kon edim”, “Bog‘i jahonki, xushturur gulshani ayshxonasi” misralari b-n boshlanadigan g‘azallari shular jumlasidandir. O.ning N. g‘azallariga bog‘lagan muxammaslari ulug‘ shoir g‘azallariga bog‘langan muxammaslarning badiiy va ma’no jihatdan eng yetuk namunalari hisoblanadi. U buyuk salafining 30 dan ziyod eng mashhur va yetuk g‘azallariga taxmis bog‘lagan va ijod yo‘lidagi ustozi va rahnamosiga munosib tarzda jo‘rovozlik qila olgan. Bu muxammaslar hammaslak, hamfikr, hamdard ko‘ngillarning aks-sadosiga o‘xshaydi. Ularning “Shashmaqom” kuylariga solinib, xalq sevgan ashulalarga aylangani va milliy qo‘shiqchiligimizning oltin xazinasidan o‘rin olgani bejiz emas. Jumladan, N.ning quyidagi mashhur g‘azaliga bog‘lagan muxammasi ham hofizlar repertuaridan mustahkam joy egallab, “Savti suvora” kuyi b-n Xorazm maqomlari yo‘lida ijro etiladi:

Falakkim yaxshilar bazmida qadrimni
baland etmas,
Dame yo‘qkim yomonlar majma’ida
mustamand etmas,

Bu hasratdin ko‘zum ashki yo‘lin bir lahza
band etmas,
Mani man istagan o‘z suhbatig‘a
arjumand etmas,
Mani istar kishining suhbatin ko‘nglum
pisand etmas.

N.ning hikmatga aylanib ketgan “Men istagan kishi meni o‘z suhbatiga munosib ko‘rmaydi, meni istagan kishining suhbatini esa men pisand etmayman” mazmunidagi baytiga bog‘lagan taxmisida O. gapni uzoqdan boshlab, buning sababini g‘addor falakning notantiligi tufayli yaxshilar davrasida qadr topmagani-yu, yomonlar qo‘liga muhtoj bo‘lgani, ko‘zidan yoshi tinmasligining sababi shunda ekanidan so‘z ochadi va o‘z hasrat-u nadomatlaridan shunday xulosa yasaydi: men istagan meni istamaydi, meni istaganni esa men istamayman.

O. qator she’rlarida N. qalamga olgan mavzularni davom ettirib, ularni rivojlantiradi va yangidan-yangi ma’no qirralarini kashf etadi. Ma’lumki, inson o‘z tabiatidagi bema’ni orzu-o‘ylari, yovuz intilishlari, nojo‘ya xatti-harakatlarini jilovlab, ayb-u qusurlarini hammadan yashirib yurishi mumkin, lekin bir kuni u o‘zining asl mohiyatini namoyon qiladi. Shundan kelib chiqib, N. o‘zining mashhur qit’asida zuvalasiga insoniylik urug‘i qo‘shib qorilmagan, nojins kimsalarni har qancha tarbiyat qilma, baribir odam bo‘lmaydi, degan fikrni bildirgan edi:

Nokas-u nojins avlodin kishi bo‘lsun debon
Chekma mehnatkim, latif o‘lmas kasofat olami –
Kim, kuchuk birla xo‘tukka necha qilsang tarbiyat,
It bo‘lur, dog‘i eshak, bo‘lmaslar aslo odami.

Darhaqiqat, odam bolasi tarbiya tufayli ilm-u hunar egallashi, ba’zi yaxshi fazilatlarga ega bo‘lishi mumkin, lekin uning tabiatidagi yovuzlik, kin, hasad, baxillik, g‘arazgo‘ylik, tuhmatchilik, yolg‘onchilik kabi tug‘ma illatlarni dunyoning jami donishmandlari bir bo‘lib tarbiyalasalar ham yo‘qotolmaydilar.

O. bu mavzuga qayta-qayta murojaat qilib, uning rang-barang qirralarini har tomonlama keng va chuqur badiiy talqin qiladi. Jumladan, ruboiylaridan birida: “Tabiati tuban kimsa boyqush kabi shum, ya’ni yomonlik manbayi bo‘ladi. Bunday yaramas kimsani tarbiya qilishga urinish behuda – bu ish faqat yomonlikka xizmat qilishi mumkin. Chunki zaqqum daraxtini har qancha obi hayot bilan sug‘orsang ham oxir-oqibat beradigan mevasi zaqqumdan boshqa narsa bo‘lmaydi”, – deb yozadi:

Badtiynat ulus bum kibi shumdurur,
Tarbiyat anga kim etsa mazmumdurur,
Zaqqum niholi ichsa gar obi hayot,
Oxir berajak mevasi zaqqumdurur.

Bir hadisi sharifda inson fitratining o‘zgarmasligi aytilgan. Inson tabiati ustida bosh qotirgan, inson tarbiyasi u-n jon kuydirgan dunyo donishmandlarining aksariyati ham oxir-oqibat insonning tug‘ma tabiatini o‘zgartirib bo‘lmasligi, u “yaratilganicha qolishi” to‘g‘risidagi xulosani bayon etishgan. O.ning mazkur ruboiysi va uning yaratilishiga bilvosita ta’sir ko‘rsatgan N.ning mashhur qit’asi ayni fikrning yorqin dalilidir.

O.ning mana bu ruboiysi ham ayni mavzuda:

Qilmoq bila parvarish tikan gul bo‘lmas,
Ham tarbiyat ila zog‘ bulbul bo‘lmas,
Gar asli yomong‘a yaxshiliq ming qilsang,
Yaxshiliq oning niyati bilkull bo‘lmas.

Maz.: Tikanni har qancha mehr berib parvarish qilganing b-n u sira gulga aylanib qolmaydi. Shunga o‘xshab, har qancha tarbiya qilgan b-n zog‘ ham bulbul bo‘lmaydi. Asli yomonga ming yaxshilik qilganing b-n uning yovuz niyati hech qachon yaxshilikka evrilmaydi.

Bu ruboiy ikkiyoqlama ta’sir mahsuli: u mazmunan N.ning yuqorida keltirilgan qit’asining bilvosita ta’sirida yaratilgan bo‘lsa, shaklan buyuk salafining yana bir mashhur ruboiysi ta’sirida ijod qilingan:

G‘urbatda g‘arib shodmon bo‘lmas emish,
El anga shafiq-u mehribon bo‘lmas emish.
Oltun qafas ichra gar qizil gul butsa,
Bulbulg‘a tikandek oshyon bo‘lmas emish.

N. ijodida keng qo‘llangan “sing‘on safol”, “raz qizi”, “Dallat ul-muhtola”, “soqiyi gulchehra” kabi timsollar ham O. g‘azallarida rivojlantirilgani va o‘zining yangi qirralari b-n boyitilganini ko‘ramiz. M-n, quyidagi baytida shoir alam va hasrat b-n: “Bu dunyo kelinchagi Ogahiyni aldaganidan bildimki, o‘sha qiz Dallat ul-muhtola ekan”, – deb yozadi:

Chun Ogahiyni aldadi bu dahr arusi,
Bildimki, ekan dallayi muhtola hamul qiz.

Ma’lumki, “F.Sh.” dostonida Farhodni oradan ko‘tarish u-n Xisrav va Buzurg Ummid o‘ylab topgan fitna asosida Farhodni makr-tuzog‘iga tushirish u-n yollangan Yosuman kampirni N. Dallat ul-muhtola (forscha-arabcha: o‘rtaga tushuvchi, hiylagar, makkora xotin; Yosuman) deb ta’riflaydi. Shoirning mubolag‘ali uslubiga ko‘ra, u makr-u hiylada shunchalik ustamonki, hiylagar falak uni xola, afsona-rivoyatlarda jodugarligi tufayli Dallat ul-muhtola nomini olgan uchiga chiqqan makkora uni ona deb ataydi. Yuzida yuzlab makr chiziqlari yaqqol ko‘rinib turgan bu ayolning tilidan umrida bir og‘iz chin so‘z chiqmagan. U hiyla boshlasa, otaga qizni, onaga o‘g‘ilni qarshi qilib qo‘yadi. Bir so‘z b-n yuzlab oilalarni buzib yuborishga qodir. U Farhodni Xisrav Armaniyani olib, Shiringa uylanmoqchi bo‘ldi, lekin u sevganiga sadoqat saqlab, o‘z joniga qasd qildi deb aldaydi. Shirindan ayru hayotida ma’no ko‘rmagan Farhod ham boshini toshlarga urib, o‘zini halok etadi. N. “F.Sh.” dostonida haddi a’losida tasvirlagan bu obraz O. baytiga dunyo timsoli o‘laroq kirib kelib, o‘ziga yangi badiiy vazifa oladi. Boshqacha aytganda, salaf shoir uchiga chiqqan makkor xotin sifatida tasvirlagan Dallat ul-muhtolani xalaf shoir Dunyo timsolida gavdalantiradi. Chunki Dallat ul-muhtolaga xos munofiqlik, muttahamlik, hiylagarlik, yolg‘onchilik, buzg‘unchilik, fitnakorlik, makkorlik kabi salbiy illatlarni barchasi dunyoda ham mujassam. Shu tariqa, N. qo‘llagan obraz O. tomonidan timsolga aylantirilib, ma’no doirasi kengaytiriladi.

Ta’bir joiz bo‘lsa, O. N. uslubi asosida o‘z uslubini shakllantiradi. Bugina emas. O. ruhiyati N. ruhiyatiga esh, buyuk salafi b-n hammaslak, hamfikr, hamdil shoir. Go‘yo N. o‘z qalamini O.ga meros qilib qoldirgandek. Xullas, “X.M.” va “Ta’viz ul-oshiqin” devonini qiyosiy o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatadiki, O. ham o‘z devoni debochasini N.ga o‘xshatib yozadi. O. ham N kabi har bir harf b-n boshlanadigan g‘azalini Alloh hamdi va payg‘ambar na’ti, munojotlar b-n boshlaydi. U ham N. kabi har bir harfga g‘azal yozishga harakat qiladi. O. N. qo‘llagan ko‘plab radiflarda g‘azal va ruboiylar yozgan. O. ham N. kabi har g‘azalining maqta’dan oldingi baytida falsafiy mulohazalarini ifodalashga harakat qiladi. U ba’zida hatto N.ga o‘xshab mushohada yuritadi, fikrini N.ga o‘xshab shakllantiradi, N. uslubida she’rlar yozadi, N. yoritgan mavzular va u ilgari surgan g‘oyalarni, u o‘rtaga tashlagan fikrlarni davom ettiradi, rivojlantiradi, yangidan-yangi ma’no qirralarini kashf etadi. O. ijodida shunday g‘azal va ruboiylar borki, ularni O. yozganmi yoki N.mi deb hayratga tushasiz. Ijodining ko‘lami va salmog‘i jihatidan ham N.ga eng yaqin shoir O. hisoblanadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Абдуғафуров А. Муҳаммад Ризо Огаҳий. – Т., 1999; Мажидий Р. Огаҳий // Ўзбек адабиёти тарихи. 5 жилдлик, 4-жилд. (XVIII асрнинг охири – XIX асрнинг биринчи ярми). – Т., 1978; Огаҳий. Девон. Асарлар, 6 жилдлик, 1-2-жилдлар. – Т., 1971–1972; Огаҳий. Ҳикматлар. – Т., 2021; Мажидий Р. Муҳаммадризо Огаҳий поэзияси // Огаҳий. Таъвиз ул-ошиқин. – Т., 1960; Каримов*

F., Долимов С. Муҳаммадризо Огаҳий (Сўзбоши) // Огаҳий. Девон // Асарлар, 1-жилд. – Т., 1971; Абдуғафуров А. Муҳаммад Ризо Огаҳий. – Т., 1999; Мажидий Р. Огаҳий // Ўзбек адабиёти тарихи, 5 жилдлик, 4-жилд. (XVIII асрнинг охири – XIX асрнинг биринчи ярми). – Т., 1978; Очилов Э. Навоий ва Огаҳий (Монография). – Т., 2022; Огаҳий. Таъвиз ул-ошиқин. – Т., 1960; Огаҳий. Таъвиз ул-ошиқин. (Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи С.Рафиддинов). – Т., 2023.

S.R., E.O.

OGAHIY XUROSONIY – Jamoliddin Muhammad (XV asr) shoir, N. zamondoshi. Shoh G‘arib mirzo mulozamatida bo‘lgan Vosifiy “… she’r va boshqa fazoilda benazir edi”, deb yozadi. Parokanda she’rlaridan 60 baytchasi yetib kelgan. O.X. hayotdagi nuqsonlar, hukmdorlarning adolatsizligi haqida jasorat b-n yozgan. Davr nosozliklari haqida Shayx Abu Sa’id Puroniyga yozgan nomasi mashhur bo‘lib, Shoh G‘arib shu bois uni Chorsuda pora-pora qilib, kulini ko‘kka sovurishni buyurgan. Lekin yaqinlar (balki N.) maslahati b-n qatl etilmay, saroydan uzoqlashtirilgan.

O.X. Shayboniy hukmronlarining zulmiga qarshi hamda shia va sunniylarning nizolarini qoralab she’rlar yozgan. Xusrav Dehlaviyning “Daryoyi abror” javobida qasida yozgan.

Faxriy Hirotiy, Xondamir va Sommirzo bu qasidani “qasidayi shahroshub” deb atashgan.

Qasidada Hirot hokimi Mu’iniddin qattiq tanqid qilinadi. Bundan g‘azabga kelgan Hirot hokimi O.X. tilini kestiradi. Bu mudhish voqeadan keyin ham O.X. yashagan va she’rlarida zulmkorlarni ayovsiz fosh etgan.

O.X. Xuroson amirlari, saroydagi nufuzli shaxslar, saltanatga mansub shaxslar haqida ham hajviyalar yozgan. O.X. haqida “M.N.” tarjimoni Faxriy Hirotiy o‘zidan ilova qilgan to‘qqizinchi majlisda alohida ma’lumot berib, ota tomonidan Jaloluddin Muhammad Qone’iyning nabirasi deb yozadi va shoirning tili qirqilishi munosabati b-n yozgan she’rini keltiradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Навоий. Мажолис ун-нафоис. – Теҳрон, 1945; Хондамир. Ҳабиб ус-сияр. Жилд 3. 1807.*

S.G‘.

ODAM (a.s.) (Odam Ato) – Islom ta’limotiga ko‘ra, Alloh tomonidan yaratilgan yer yuzidagi birinchi odam, dastlabki payg‘ambar va bashariyatning otasidir. Qur’oni Karimda O. (a.s.)ning nomi 25 oyatda uchraydi. U kishi Abul-Bashar deb ham ataladi. N. yozadi: Odamning kuniyati Abulbashar (Bashariyat otasi) va laqabi Safiyulloh (Allohning sof bandasi)dir. N. na’t g‘azallaridan birida shunga ishora qilgan:

Turfa bukim, Bulbashar keldi atolarg‘a ato,
Lek Bulqosim dedi farzand ani bevahm-u biym.

Baytdagi Bulbashar (Abulbashar) O. (a.s.) ning, “Bulqosim” (Abulqosim) Payg‘ambarimizning (s.a.v.) kunyalari bo‘lib, katta o‘g‘illarining ismi Qosim edi.

Qur’on va hadislarda Odam Atoning yaratilishidan boshlab, xotini Havvo b-n avval jannatda, so‘ngra yer yuzida yashab, farzandlar ko‘rib, hayotdan ko‘z yumishiga doir ma’lumotlar keltirilgan. Islomiy manbalarda O. (a.s.)ni tuproqdan, xotini Havvoning esa uning chap tomon qovurg‘asidan yaratilgani aytilgan.

O. (a.s.)ning yaratilish qissasi insoniyat va payg‘ambarlar tarixida alohida ahamiyatga ega. Burhoniddin Rabg‘uziy “Qisas ul-anbiyo”da Hazrat payg‘ambarimizning (s.a.v.): “Kim dunyo ajoyibotlariga nazar tashlashni xohlasa, bas, unga aytinglar, Odam (a.s.) qissasiga nazar solsin”, – degan hadislarini keltiradi. Ayrim manbalarda aytilishicha, O. so‘zi “adim” so‘zidan olingan bo‘lib, “aralash tuproq” degan ma’noni bildiradi, boshqa manbalarda, O. (a.s.) yer sirtidan (ustki qismi, sirti) yaratilgani u-n O. (a.s.), Havvo onamiz esa “hay”, ya’ni tirik vujuddan yaratilgani u-n Havvo deb nomlangan. Azozil “Meni o‘tdan yaratding, u Odamni qaro tuproq-

dan yaratding”, deb vaj ko‘rsatib, kibrlanganda, uning Azozil degan oti o‘rniga Iblis deb nom berilgan. Iblis bu “noumid” deganidir.

N. “T.A.H.” asarini “Odam salavotullohi alayh xilqati” b-n boshlagan. O. (a.s.) qissasini Qur’on oyatlaridan iqtibos keltirib, ishonchli manbalarga suyanib, muxtasar tarzda bayon qilib bergan. Uning yozishicha, bir hovuch tuproqni yer yuzidan olib, Haq taoloning amri b-n jannatga keltirib, Muhammad (s.a.v.)ning tiynatini tasnim suvi b-n qorishtirib, farishtalarga amr qilgankim, olam va Odamning yaratilishidan maqsad oxirzamon payg‘ambarining kelishidir. Shundan keyin O. (a.s.) tuprog‘iga 40 kun rahmat yomg‘iri yog‘dirib, o‘z qudrat qo‘li b-n qorgan. Bu voqeani N.: “(Odamning loyini qirq kun (tong) o‘z (qudrat) qo‘lim bilan qordim)”, degan hadisi qudsiy orqali bayon qilib bergan.

Qachonki, O. (a.s.) jasadiga ruh kirib, u mukarram insonga aylangandan keyin Yaratuvchi unga barcha narsalarning ismlarini o‘rgatgan. Farishtalar O. (a.s.)ning ulug‘ligini e’tirof etib, unga sajda qilganlar. Ammo jinlardan bo‘lgan Iblis takabburlik qilib, sajda qilmagan va tavqi la’natga qolgan. N. O. (a.s.) va Havvoning jannatda yashagani va taqiqlangan mevani yeb quvilgani, er-xotinlar bir-biridan ayro tushib, yana Arafot tog‘ida ko‘rishgani haqida muxtasar ma’lumot beradi. O. (a.s.)ning Qobil va Hobil farzandlari haqidagi ayanchli voqeani hikoya qiladi. Aytishlaricha, birinchi “marsiya” O. (a.s.)ning Hobilg‘a aytgan marsiyasidir.

N.ga ko‘ra, Odam Ato va Momo Havvo Hindiston mamlakatida bir- biridin ayro tushganlar. O. (a.s.) Makkaga kelib, Arafot yonida Havvo b-n uchrashishgan. Shu tufayli mazkur joy Arafot atalib, ma’nosi arab tilida “tanishgan joy”dir. Undan so‘ng O. (a.s.) Ka’ba uyini yasadi. Yana qaytadan Hindistonga bordi. Jabroil (a.s.) jannatdan turli xil don-dunlar keltirib berdi, O. (a.s.)ga qo‘sh surib, ekin ekish qoidasini o‘rgatdi.

O. (a.s.)ga 10 sahifalik dastur nozil etilgan. Bu dasturda Allohga iymon keltirish va uning buyruqlariga itoat etish (ibodat) yozilgan edi. “Ba’zi olimlarning aytishlaricha, Odam (a.s.)ga o‘limtik, qon, to‘ng‘iz go‘shti kabilarni yeyish harom qilingan, yigirma bir varaqlik kitob nozil etilgan”. Dunyoda birinchi bor dehqonchilik, tegirmonchilik va novvoylik qilgan kishi O. (a.s.) dir. Dunyoda birinchi qo‘lga o‘rgatilgan hayvon itdir. Chunki O. (a.s.)ga boshqa hayvonlar hamla qilmoqchi bo‘lganida, itning boshini silagan va u boshqa hayvonlarni quvib yuborgan. N. she’riyatida O. (a.s.)ning aziz va mukarram qilib yaratilgani, Ilohiy buyruq bo‘lgani sababli farishtalarning unga sajda qilgani, shaytonning kibr qilib sajda qilmagani va Ilohiy dargohdan haydalgani zikr etiladi. Shuningdek, O. (a.s.) jufti – Momo Havvo b-n shaytonning makriga uchib, man qilingan daraxt mevasini yegani va jannatdan quvilib yerga tushgani, tavbasi tufayli Alloh taolo tomonidan afv etilgani kabi voqealar g‘azallarda turli munosabatlar b-n talmeh sifatida keltiriladi. Nasli odam, bani odam, odam xayli, odamizod, avlodi odam kabi istioraviy iboralar orqali insoniyat, bani bashar, odamlar guruhi nazarda tutiladi. N. tasavvufiy bir g‘azalida yozadi:

Zihi, mulkungnung o‘n sekkiz mingdin
biri kelib olam,
Bir uyluk qul sanga olam aro Havvo bila Odam.

N. she’rlarida O. (a.s.) b-n Havvoning yaralishidan maqsad, insoniyatning dunyoga kelishi va Yaratganga bandalik qilishidir, deya uqtirilgan. Uning g‘azallarida “Men jin va insonlarni faqat o‘zimga itoat qilishlari uchungina yaratdim”, (“Vaz-zoriyot” surasi, 56-oyat) oyatiga bir talay ishoralar uchraydi. Shoir “S.I.” dostonida ham olamning yaralishidan maqsal odamning yaralishi ekanligini aytgan:

Karam birla xalq aylagay olame,
Bu olamda maqsud anga odame.

N. O. (a.s.)ning jannatda taqiqlangan mevani yegandan keyin, u yerdan haydalib, yerga tushgani va Xudoga yillar davomida “Zalamno

rabbano…”, “Biz ikkimiz (Odam va Havvo) o‘z jonimizga zulm qildik”, (“A’rof” surasi, 23-oyat) tavba qilganiga ishora qiladi:

Chekmay malak lutfung kuni juz zikr ila
tasbih uni,
Odam debon qahring tuni har dam
“zalamno rabbano”.

Shoir “H.A.”da Muhammad (s.a.v.) nurining Odam Safiyullohdan Abdullohga qadar yetib kelganini bayon qilib, O. (a.s.) avvalo o‘g‘il, so‘ngra ota ekaniga diqqatni qaratadi:

Bo‘ldi sanga Odam sabqatnamo,
Avval o‘g‘ul, so‘ngra gar o‘lsa ato.

N. g‘azallarida O. (a.s.) bashariyat naslining rishtalarini bir-biriga bog‘lagan bo‘lsa ham, zohirda Muhammad (s.a.v.)ga otadek tuyulgani b-n ma’nan unga farzand bo‘lishi eslatilgan:

Odamki, bashar nasli silkiga erur payvand,
Suratda sanga volid, ma’noda sanga farzand.

Nuri Muhammadiy Odam Atodan Havvo xotini orqali Shis (a.s.)ga o‘tadi. Shu tartib bilan otadan-otaga, onadan-onaga o‘tib, Payg‘ambarimizning otalari Abdullohga yetadi... O. (a.s.) b-n bog‘liq bir qator voqea va hodisalar N. ijodida talmeh san’ati sifatida keltirib o‘tilgan. O. (a.s.) va Havvo qissasini yaxshi bilgan o‘quvchi N. asarlaridagi ma’no va ishoralarni yanada teran anglashga erishadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Ислом энциклопедияси. – Т., 2004; Носириддин Бурҳониддин Рабғузий. Қиссаси Рабғузий. 2 жилдлик, 1-жилд. – Т., 1990; Раҳмутуллоҳ қори Обидов. Пайғамбарлар тарихи исломият тарихидир. 2 жилдлик. 1-жилд. – Т., 2005; Пайғамбарлар тарихи исломият тарихидир. 2 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2014.*

S.R.

ODAMIZODA (ar.f.) – odamdan tug‘ilgan, odam farzandi, inson; insoniyat, odamiyat. N. ning “M.N.” tazkirasida keng qo‘llangan bu so‘z “Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati”da “odamiylikka mansub”, “mard”, “mardlik” deb izohlanadi. Lekin “Hiriyning odamizodalaridin” tarzida qo‘llanganidan “tub yerlik aholiga mansub kishi”, “tag-tugi bilan shu yerlik”, ya’ni biror yerdan kelib qolmagan, ota-bobolari ham asli shu joylik ma’nosida ishlatilganligi ma’lum bo‘ladi. M-n, Mavlono Xurramiy haqida ma’lumot berar ekan, “Hiriyning odamizodalaridindur, ammo o‘zida odamiylikdin asar, balki bo‘e yo‘qtur”, – deb yozadi. Agar bu so‘z mard, mardlik ma’nosida bo‘lganida shoir bunday demagan bo‘lar edi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 2 жилд. – Т., 1984.*

E.O.

ODAMIY – insoniy, insonlarcha; tirik mavjudot, inson. 1. Ot. Chin odam, haqiqiy inson, odamlarga jonkuyar. 2. Sifat. Odamga, chin insonga xos xususiyat.

N. asarlarida “odamiy” unga yondosh va ma’nodosh sifatida “odam” so‘zlari ko‘p qo‘llanadi. Ulug‘ shoir O. so‘zi orqali haqiqiy insonga xos fazilatlarga ega bo‘lgan shaxsni tushunadi. O. deganda darhol N.ning mashhur baytini eslaymiz:

Odamiy ersang demagil odami
Onikim, yo‘q xalq g‘amidin g‘ami.

Bu bayt teran ijtimoiy mazmunga ega bo‘lib, shaklan jarangdor va badiiy jihatdan uyg‘-

un. Shuning u-n ham besh yuz yildan beri odamlar tilida va dilida uni takrorlab yuradi. Akad. A.Rustamov bu baytga xos bo‘lgan o‘nta fazilatlarni sanab, undagi til qoidalari, badiiyat qurilishi va insoniy g‘oyalar haqida to‘xtalib o‘tadi. Darhaqiqat, haqiqiy inson xalqqa xizmat qilishi, xalqparvar bo‘lishi, chin ma’noda O.lik xislatlarini namoyon qilishi kerak. O.likning yaxshi fazilatlari haqida N. “M.Q.” asarida shunday deydi: “Odamiyning yaxshirog‘i uldurkim, porso va pok bo‘lg‘ay va Haq so‘zin ayturda bevahm-u bok bo‘lg‘ay. O‘zi pok-u ko‘zi pokni inson desa bo‘lur. Tili arig‘ va ko‘ngli arig‘ni musulmon desa bo‘lur. Musulmon uldurki, musulmonlar aning til va ilgidin emin bo‘lg‘aylar va ko‘zi ko‘nglidin mutmain”. N. “H.A.”ning birinchi munojotida odam jinsining ulug‘ xilqatligi va sharofatidan bahs yuritib, Tangridan o‘ziga ham sirdoshlik va chin ma’noda odamiylik xislatiga ega bo‘lishni tilaydi:

Yo Rab, o‘shul ganjki mahram anga,
Kimsa emastur, magar odam anga,

Ayla Navoiyni burun odamiy,
Kim bo‘la olg‘ay bu haram mahrami.

N. mazkur asarida tilanchi va ochko‘z gadolarni tanqid qilar ekan, ularni odamiylikdan yiroq kishilar sifatida mazammat qiladi: “... bular orasida o‘ziga qalandar ot qo‘yg‘on mal’un, odamiylig‘din mag‘bun va dev va shayton ollida mat’un. Insoniyat va musulmonliqdin yiroq, to‘ng‘uz va ayig‘ odamiylig‘da alardin yaxshiroq. Shakl tag‘yiri bila odamiylig‘din karona, po‘stun evura kiymaklari hayvonlig‘ va sabuiyatdin nishona...”

Ulug‘ shoirning ta’kidlashicha, inson ma’lum bir daraja topib, osmonga sayr qilib, suv ustida yursa ham, to o‘zini xas kabi ojiz va xoksor deb bilmasa, u haqiqiy ma’noda odam hisoblanmaydi:

To o‘zungni xascha ko‘rgungdur emassen odamiy,
Gar havoda sayr qil, gar suv uza ko‘rguz xirom.

N.ning she’rlarida odam va O. so‘zlari ko‘p bor va turli ma’nolarda qo‘llanadi. N. baytlaridan birida yaqin bir odamiga mehr ko‘rsatgani, jon fido qilgani, lekin evaziga uning odamiylik qilmaganidan ranjiydi. Yaxshilikka yaxshilik qaytmaganidan so‘ng pari jinsiga ham inson jinsiga ham ishing tushmasin deb, Tangriga iltijo qiladi.

Necha jon qildim fidosi — odamiylig‘ topmadim,
Tushmasun, yo Rab, pariy jinsi bila insong‘a ish.

N.ning nazmiy va nasriy asarlarida O. so‘zi odam jinsiga, odam bolasiga nisbatan ham qo‘llanadi. N. “M.Q.” asarida dehqonlar haqida so‘z yuritib, Odam (a.s.)ning qo‘sh haydab, dehqonchilik qilganini eslatadi. Shu bois, rostgo‘y va mohir dehqon Odam (a.s.)dek bo‘lmasa-da, uning naslidan bo‘lgan bir odam deya ta’riflaydi.

Qit’a:

Kimki dehqonlig‘ ayladi pesha,
Dag‘i non bermak o‘ldi anga shior.
Bo‘yla kimsa uluvvi rif’atdin.
Odam o‘lmasa, odamiy xud bor.

Quyidagi baytda ham O. so‘zidan maqsad, odam jinsi, inson, odam farzandi ma’nolarida kelgan:

Kimki aning bir malaksiymo pariyvash yori bor,
Odamin bo‘lsa, pariy birla malakdin ori bor.

Ko‘rib o‘tganimizdek, N.ning odam va O.lik haqidagi qarashlari insonlarning axloqini tuzatishga, o‘z-o‘zini taftish qilishga va “xalq g‘ami”ni yeyishga dalolat qilishi b-n ahamiyatlidir.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. – Т., 2007; Алибек Рустамов. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Т., 1979; Ҳаққул И. Касби камол ўзни танишдир. – Т., 2021.*

S.R.

ODIL SHOH – N. asarlarining bosh g‘oyalaridan biri O.Sh. va uning saltanatida farovon xalqni ko‘rish bo‘lgan. Al-Adl Alloh ismlaridan biri bo‘lib, “Axir Alloh hukm qilguvchilarning eng adolatlisi emasmi?! (Darhaqiqat, Alloh taolo Qiyomat kunida eng odil hukm qilguvchidir” oyati karimasida ta’kidlanganidek, odil shoh Robbul olamindir. So‘ngra uning rasuli Muhammad (s.a.v.) hisoblanadi. Zero, Qur’onda shunday xabar qilinadi: “Ayting: “Men Alloh nozil qilgan har bir Kitobga iymon keltirdim va sizlarning o‘rtangizda (mendan so‘rab kelgan muammolaringizni hal etishda) adolat qilishga amr etildim”.

Podshohlarning yerdagi xalifa o‘laroq odil sifatiga ega bo‘lishi lozim bo‘lgan. “T.M.A.” asarida Afridun, Hushang, Binni Yalosh, Zob binni Tahmosb, Binni Ardasher, Firuz binni Yazdijird, Manuchehrlarning odil shohligi alohida e’tirof etiladi: “Manuchehr Erajning qizining o‘g‘li erdi. Ba’zi debdurlarkim, o‘g‘lining o‘g‘li. Va ul odil podshoh erdi. Eron binni Yalosh. Gudarzning qardoshi o‘g‘li erdi. Olim va odil erdi. Gudarz zamonida aning zulm va tahattukidin xazoyin xoli va mulki buzug‘ erdi”.

Adabiyotda O. Sh. tamsilchisi No‘shiravondir. Jumladan, N. lirikasida ham talmeh san’atida O. Sh. sifatida No‘shiravonga ishora qilinadi:

Ey visol ahli, siz-u izzat bisoti uzra aysh,
Kim yetibdur bizga qismat ishqdin hajr-u havon.
Ey Navoiy, yor agar zulm etsa, shahg‘a qil duo,
Kim anga tobi’durur adl ichra yuz No‘shiravon.

Adolat, O.Sh. masalasiga alohida e’tibor qaratgan shoir “M.Q”ning avvalg‘i faslini “Odil salotin zikrida”, deya nomlaydi. Mumtoz adabiyotda adolat, albatta, shohlik b-n bog‘langan. Fuqaroning adolati bir bandaning fazilati, uning halolligini belgilasa, shohlarning adolati N. ta’kidlaganidek: “Odil podshoh Haq taolodin xaloyiqqa rahmatdur va mamolikka mujibi amniyat va rafohiyat. Quyosh bila abri bahordek qaro tufrog‘din gullar ochar va mulk ahli boshig‘a oltun bila durlar sochar. Fuqaro va notavonlar aning rifq va madorosidin osuda, zalama va avonlar aning tig‘i siyosatidin farsuda”. N. “N.J.”da “Davlat ul-muluki fil-adli” (Shohlarning davlati adolat uzradir)” hadisini shunday sharhlaydi:

Shah ubbahat-u hashmatidur adli bila,
Iqbol dag‘i shavkat erur adli bila,
Olam eli amniyatidur adli bila,
Sultonlarning davlatidur adli bila.

N. asarlarida O.Sh. va darvesh obrazi yonmayon keladi hamda ma’naviy martabada mushtaraklashadi:

Ulus podshohi-yu darveshvash,
Anga shohliqdin kelib faqr xash...
Bori benavolar navosozi ul,
Hamul nav’kim, Shoh Abulg‘ozi ul.

Zamonasining ulug‘ arbobi N. u-n davrdosh hukmdor Husayn Boyqaroning odilligi muhim sanalgan, shuning u-n nafaqat siyosiy faoliyatida, balki ijodiyotida ham shoir bunga alohida urg‘u bergan. Asarlarida Husayn Boyqaroni ulug‘lab, hatto No‘shiravondan ham ustun qo‘ygan.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик.,9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Назм ул-жавоҳир. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

Z.R.

ODILOV Ibodullo – (1872–1944) Buxoroda tug‘ilgan, xattot, hofizi Qur’on va sahhof bo‘lgan. U arab, fors-tojik tillarini yaxshi bilgan manbashunos olim, Buxoro xattotlik maktabi vakili, otasining yonida sahhoflik b-n shug‘ullanadi va otasidan har bir qo‘lyozma tavsifini eshita-eshita o‘zi ham yetuk manbashunosga aylanadi. 1920-y.dan Buxoro shahar kutubxonasida, 1930-y.dan Samarqand shahar kutubxonasida, 1935-y.

dan Toshkentda O‘zbekiston Davlat kutubxonasida ishlagan. 1943–44-yy.da O‘zR FA Sharqshunoslik institutida ilmiy xodim vazifasida xizmat qiladi. O.I. qo‘lyozmalar tavsifini va qachon yozilganini belgilashda (ko‘pincha kotibi yoki muallifi noma’lum bo‘ladi.) mohir sanalgan. U O‘zR FA Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar fondida har bir kitob tavsifini berishda bosh mutaxassis. O.I. fonddagi ba’zi yaroqsiz bo‘lib qolgan N. asarlari va boshqa qo‘lyozmalarni qaytadan nasta’liq xatda ko‘chirib, tiklash yo‘li b-n kitobxonga kitoblardan foydalanishni yengillashtirib, ularning saqlanib qolishiga katta hissa qo‘shadi. Ular quyidagilar: “M.”, “M.A.”. O‘zR FAShI. Inv. № 3441. 39 varaq. 1357/1938; “R.M.”. O‘sha fond. Inq. № 5667-1. 13 varaq. 1359/1940; “H.P.M.”, “H.S.H.A.”. O‘sha fond. Inv. № 5733. 23 varaq. 1360/1941; “M.L.”. O‘sha fond. Inv. № 5829. 34 varaq. 1360/1941.

O.I. N. asarlaridan tashqari bir qancha o‘qilishi qiyinlashgan qo‘lyozma kitoblarni ham ko‘chirgan. Ular orasida “Majmuayi murosalot yoxud muraqqa’yi Navoiy” (Xatlar to‘plami yoxud Navoiy albomi) alohida ahamiyatga molikdir. Mazkur qo‘lyozma Abdurahmon Jomiy va XV asrning boshqa atoqli kishilari tomonidan N.ga yozilgan xatlar majmuasidan iborat. N. o‘ziga kelgan xatlarni maxsus qog‘ozlarga yopishtirib, har birini alohida to‘plab borgan va ulardan “muraqqa’” (albom) hosil bo‘lgan. (Q.: Navoiy albomi).

Ad.: *Ирисов А. Тошкентда Арабшуносликк. – Т., 1964; Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. – Т., 1991; Собрание восточных рукописей академии наук Узбекистан. VII. – Т., 1964.*

Muh.A.

ODOBI MUKOTABAT (Yozishmalar odobi) – Musulmon Sharqida o‘zaro yozishmalarda (maktublarda) rioya qilingan odob qoidalari. O.M. Sharqda insho san’atining rivojlanishi, uning o‘ziga xos xususiyatlari va talablarining yuzaga kelish jarayoni b-n bog‘liq ravishda shakllangan. Yozishmalar odobi tomonidan taqozo qilingan qoidalarga rasmiy yozishmalarda ham, xususiy yozishmalarda ham amal qilingan, xususan, rasmiy yozishmalarda ularga qat’iy rioya qilish shart bo‘lgan va bu qoidalarning buzilishi jiddiy oqibatlarni (nizolar, ayrim hollarda, urushlarni) keltirib chiqargan. N. “M.”idagi barcha maktublar yozishmalar odobiga izchil amal qilingan holda bitilgan. Bu, eng avvalo, xatlarda adresatning shaxsi, ijtimoiy mavqei, nasl-nasabi e’tiborga olinganida ko‘rinadi. Shohga, shahzodalarga yo‘llangan maktublar ularni ulug‘lovchi so‘zlar, madh yoki duo b-n boshlanadi, zero O.M. shuni taqozo etar edi. Bu xatlarda har bir so‘z, ibora chuqur o‘ylab yozilgani, har bir fikr teran mulohaza va andishadan kelib chiqib bayon qilingani sezilib turadi. Muallifning muddaosi o‘ta nazokatli bir tarzda izhor etiladi. Shu o‘rinda muhim bir holatni, ya’ni shoir o‘z maktublarida amal qilgan O.M., andisha va mulohazakorlik unga haq so‘zni aytishga mone’ bo‘lmaganligini ta’kidlash joiz. N.ning shahzodalarga yozgan maktublaridagi nasihatlari va ayrim hollarda bir muncha achchiq pandlari shundan dalolat beradi (Husayn Boyqaroga yo‘llangan maktublar bundan mustasno).

N.ning do‘stlari, boshqa yaqin kishilariga yozgan maktublari ham yozishmalar odobi nuqtayi nazaridan diqqatga sazovor. Ma’lumki, shoir davlatdagi mavqeyi, shohga yaqinligiga ko‘ra ularning ko‘pchiligidan balandroq maqomga ega edi. Shunday bo‘lishga qaramasdan, bu maktublar mutlaqo kibrdan xoli. Muallif ularda yozishmalar odobiga amal qilgani, adresatlarga nisbatan o‘zini xoksor, kamtar tutgani, ularning hurmatini o‘rniga qo‘ygani ko‘zga tashlanadiki, bu hol yana bir bor uning oliyjanob insoniy qiyofasini namoyish etadi. Shoirning O.M.ga e’tibor bergani “S.I.” dostonida ukasi Darvish Alibekka bag‘ishlangan bobda ham aks etgan. U ukasiga turli masalalar bo‘yicha nasihat qilar ekan, ular orasida shohga yozgan xatlarida odob qoidalariga rioya qilishni alohida uqtiradi va “shohga menga yozgandek yozmagin”,– deya tayinlaydi:

Manga so‘z yozardek, ang‘a yozmag‘il,
Nishoting binosin tubin qozmag‘il.

Yozishmalar odobiga doir ayrim qaydlar N. ning “M.”idagi bir maktubida ham mavjud. Unda shoir viloyat hokimi bo‘lgan shahzodalardan birining (bizningcha Badiuzzamon Mirzoning) so‘roviga binoan o‘zga hukmdorga yo‘llanadigan maktubni qay tarzda bitish to‘g‘risida Husayn Boyqaroning ko‘rsatmalarini bayon qiladi. Bu o‘rinda odobi mukotabatning asosiy talabi – xatning adresat maqomi va nasabiga mos tarzda hurmat b-n bitilishi alohida ta’kidlangan. Shuningdek, muhrni qayerga bosish lozimligi ham ko‘rsatilgan va bu bejiz emas, zero, rasmiy yozishmalarda muhrning o‘rni, uning qayerga bosilishi muhim ahamiyatga ega bo‘lgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Муншаот. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Эргашев Қ. Ўзбек насрида иншо. – Т., 2011; Муҳаммад ибн Хиндуш Нахчивоний. Дастур ал- катиб фи тайин ал-маратиб. – М., 1964.*

Q.E.

ODOBI TASNIF – Sharq adiblari o‘z asarlarini yozishda rioya qilgan odob qoidalari. O.T. Sharq adabiyotida uzoq vaqt davomida shakllangan va mualliflarning bir qator an’ana hamda qoidalarga rioya etishlarini taqozo qilgan.

N. o‘zining butun ijodida O.T.ga qat’iy amal qilgan. Bu hol uning asarlaridagi an’anaviy muqaddima boblar (hamd, na’t, va hakozo) dan boshlab, u qo‘llagan usullar, bayon tarzi va boshqa jihatlarda namoyon bo‘lib turadi. Shoir asarlarining debocha va muqaddimalarida hukmdorning (Husayn Boyqaroning) madh etilishi ham O.T. taqozosi bilandir. Bundan tashqari, u yana boshqa ko‘p o‘rinlarda shohni tilga oladi va O.T.ga rioya qilgan holda ulkan ehtirom ruhi b-n sug‘orilgan so‘zlar bitadi, shohga ulug‘lik, kuch-qudrat, sahovat, jasurlik kabi sifatlarni nisbat beradi, ikkinchi tomondan, o‘zini benihoyat xoksor tutadi, o‘ziga nisbatan qul, banda, notavon, zarra singari so‘zlarni qo‘llaydi.

Shuni ta’kidlash kerakki, davr etiketi va O.T. ta’siri ostida shakllangan an’ana faqat hukmdorlar haqida so‘z ketganda emas, boshqa o‘rinlarda ham mumkin qadar o‘zini xoksor tutishni, o‘z shaxsiyatiga tegishli barcha masalalarda kamtarlik-kamsuqumlikni talab qilgan. N. asarlarida muallifning ushbu talabni hech bir holatda ko‘zdan qochirmaganligini ko‘rish mumkin. U faqat shaxsiyati emas, balki, ijodi, faoliyati haqida ham benihoyat andisha va kamtarlik b-n yozadi. Ma’lumki, N.ning Sulton Husayn Boyqaro davlati u-n qilgan xizmatlari ulkan edi. Bularning barisini u “daryoga qo‘shilgan qatra” tarzida ta’riflaydi. O.T.ga rioya qiluvchi boshqa sharq adiblari singari N. ham o‘zi haqida birinchi shaxsda emas, ko‘proq uchinchi shaxsda yozishni ma’qul ko‘radi. Bundan tashqari o‘zi b-n boshqalar o‘rtasidagi suhbat, muloqotlarni bayon qilganda ular tilidan o‘ziga nisbatan “sen”, o‘zining tilidan ularga nisbatan “siz” so‘zlarini qo‘llaydi.

Muallifni moddiy yoki ma’naviy qo‘llab-quvvatlagan, unga saxovat ko‘rsatgan yoxud boshqa bir yo‘l b-n uni ijodga rag‘batlantirgan kishilarning nomlarini o‘z asarida tilga olib o‘tish, minnatdorchilik bildirish, madh etish yoxud u yozayotgan asarlar mavzusiga undan oldin qo‘l urgan salaflarni yodga olish, ularni ta’rif qilish ham odobi tasnif doirasidagi ishlar hisoblanadi. N. asarlarida, xususan, “X.” dostonlari muqqadimalarida o‘z homiysi – Husayn Boyqaro madhidan tashqari buyuk salaflari Shayx Nizomiy, Xusrav Dehlaviy va zamondoshi Abdurahmon Jomiy haqida maxsus to‘xtaladi, ularning shaxsiyatlari, asarlari haqida so‘z yuritadi va o‘zining yuksak ehtirom hamda hurmatini namoyish qiladi, bu boblar faqat O.T. nuqtayi nazaridan emas, umuman, adabiyot tarixi, N.ning yuqoridagi adiblar ijodiga munosabati nuqtayi nazaridan ham qimmatlidir.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-жилдлар. – Т., 2011; Эргашев*

Қ. Ўзбек насрида иншо. – Т., 2011; Қодиржон Эргашев. Услубнинг шаклланишида давр билан боғлиқ омиллар // ЎТА, 2005, №1; Эргашев Қ. Услубнинг шаклланишида давр билан боғлиқ омиллар // ЎТА, 2005, № 1.

Q.E.

OZARBAYJON – Kavkazda joylashgan davlat. N. asarlarida millat nomi, atoqli ot, joy nomi sifatida bir necha o‘rinlarda qo‘llangan.

“T.A.H.” asarida N. yozishicha, Nuh (a.s.) ning o‘g‘li Somdan yana olti farzand tug‘ilgan bo‘lib, birining ismi Budaz bo‘lgan. Budazning o‘g‘li esa Ozarbayjon bo‘lib, ozar millatiga mansub kishilar undan tarqalgan. “T.M.A.”da esa N. tomonidan Afrosiyob, Kayxisrav, Bahrom binni Yazdijird, Shod Firuz, Mazdak singari tarixiy shaxslarga bag‘ishlangan matnlarda ham O. joy nomi o‘laroq istifoda etilgan. Shuningdek, “M.N.”da N. hali 3-4 yoshlaridayoq she’rlarini yod olgani Qosim Anvorga bag‘ishlab yozgan fiqrasida ham shoirning asli O.lik ekanini alohida ta’kidlab o‘tgan: “Mirning asli Ozarbayjondindur va mavludi Sarob otlig‘ kentdindur”. Bundan tashqari, “N.M.”ning 728-fasli asli O.lik Shayx Ozariyga bag‘ishlangan bo‘lib, N. uni o‘zining “M.N.” asarida ham tilga olgan. Ayni kitobning Abubakr Susiy (q.t.s.), Xoja Ubaydulloh (q.s.)ga bag‘ishlangan qismlarida O. hududlarida mazkur avliyolar juda mashhur bo‘lgani alohida ta’kidlab o‘tilgan. N. tazkirada Mavlono Jaloliddin Rumiy hali bola ekan, otasi Shayx Bahouddin Valad (q.t.s.) b-n O.da 4 yil yashagani xabarini ham bergan. Umuman olganda, O. atamasi b-n bog‘liq kishi va joy nomlari, alohida shaxslar N. hayotida muhim rol o‘ynagani ma’lum bo‘ladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

S.O‘.

OZOD / OZODA (f.) – 1. Erkin, hur, forig‘, xalos bo‘lgan; hech kimga tobe bo‘lmagan, band-u bog‘liqliklardan qutulgan. 2. Xoli, bo‘sh. 3. Yetuk, komil, beayb. 4. Ezgu xislatlar sohibi, oliyjanob, javonmard. 5. Yolg‘iz, tanho. 6. Tik, rost, adl. Sarvning bo‘yi tikligi, savsanning bari to‘g‘riligi u-n O. deydilar: sarvi ozod, savsani ozoda. Naql qilishlaricha, sarvga xazonning qo‘li yetmasligi, oq savsan ranglardan xoliligi u-n O. deydilar.

Tasavvufda dunyoviy bog‘liqliklardan xalos bo‘lgan, tarkidunyo qilgan; beparvo, qalandarmashrab, odamlardan uzilgan, ayb-u qusurlardan xoli, komil inson O. deyiladi.

Oshiqning o‘z zot va sifatlarini mahbub zoti va sifatlarida mahv etib, foniy bo‘lish maqomi. Botiniy va zohiriy taalluqlardan qutulib, mosivallohni tark etgan va Haqdan boshqa hech narsaga bog‘liq bo‘lmagan kishi, ya’ni dunyodan ozod-u Haqqa banda. M-n, “N.M.”da Molik Dinor haqida “ikki olamdin ozoda ermish” deyiladi. Darveshlik mazhabining asosi zohirda va botinida O. va ozodalikdan iborat. O. inson barcha mavjudot shohi bo‘lib, butun mavjudot uning nazari ostida bo‘ladi: har bir narsani o‘z o‘rnida ko‘radi va har bir narsani o‘z maqomida taniydi. Hech kim va hech narsa b-n bahslashmay, hamma b-n murosada yashaydi, hamma narsadan forig‘ va O.dir. Hammani ma’zur tutadi, ya’ni hech kimning va hech narsaning bandasi emas. Ammo muxolifdan qochadi-yu, muvofiq b-n topishadi. Bu dunyodan O. kishining 4 alomati mavjud: yaxshi so‘z, yaxshi fe’l, yaxshi axloq, maorif. Kimdaki bu 4 xislat bo‘lmasa, bu dunyo molu mansabiga qiziqsa, u o‘zini tanimagan, Xudoni bilmagan hisoblanadi va uning hayoti zulmatdan iborat bo‘lib, unda bir qatra nur bo‘lmaydi.

N. ijodida bu so‘z turli ma’nolarda faol qo‘llanganini ko‘ramiz. M-n:

Sarsabz erur hamisha bu gulshanda sarvdek,
Ozodayeki, bo‘lsa mizojida i’tidol.

Bu chaman kayfiyatin ozodayekim qildi fahm,
O‘n tili savsandek o‘lsa hayrat aylar lol ani.

Mutlaqo aybi yo‘q kishini O. deydilar. Hech nimaga bog‘liqligi bo‘lmagan, hur va erkin, xalos bo‘lgan va najot topgan. Egrilik illati va boshqa shoxga tobeligi bo‘lmagan oq savsan ham O. deb ulug‘lanadi. Mevasiz daraxtlarni, jumladan, savsan va sarvni ham O. deydilar. Muhaqqiqlar nazdida, zohiriy va botiniy bog‘liqliklardan qutulgan kishi O. ataladi.

Donishmanddan: “Qanchadan-qancha mashhur va mevali daraxtlar qolib, nega aynan sarvni O. deydilar?” – deb so‘rashganida shunday javob bergan ekan: “Boshqa daraxtlar muayyan faslda yashnab, muayyan faslda so‘ladi. Sarv esa hamisha birday yam-yashil yashnab turadi. O.larning sifati shunday bo‘lishi kerak”.

Valiytabiat, ulug‘, asl, halol, solih kishilarni O. hisoblaydilar.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Муҳаммадҳусайни Бурҳон. Бурҳони қотеъ. Луғат. Жилди 2. – Душанбе, 2004; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва таъбироти ирфоний. – Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.); Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005; Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. – Душанбе, 1987; Фарҳанги забони тожики. Жилд 1. – М., 1969.*

I.H., E.O.

OYINA (KO‘ZGU) – Mir’oti Haq, oyinayi Rahmon ham deyiladi. Chunki Alloh barcha mavjudotlardan ko‘ra insonda ko‘proq tajalliy etadi, komil insonda esa eng mukammal tarzda tajalliy etadi. Haqqa nisbatan butun koinot O. maqomidadir. Bu O.ning jilvasi esa insondir. Mavjud olam inson jilvasi b-n jilolanmaganda, Haq unda bu qadar mukammal tajalliy etmasdi. Alloh darajasiga ko‘ra nabiylar, rasullar, valiylarda mukammal tajalliy etadi.

Mo‘min mo‘minning O.sidir, degan hadisga ko‘ra, bandalar bir-birlarining ayb-u xatolarini bir-birlariga ko‘rsatish orqali o‘z qusurlaridan poklanadilar. Bir-birlarining ezgu fazilatlardan boshqalari o‘rnak oladilar. Bu tushunchaga ko‘ra, pir muridning o‘z navbatida, murid pirning O.sidir. Ilohiy kamol avval Haqdan pirga, keyin pirdan muridga o‘tadi. Mo‘minning qalbi O. kabi bo‘lganligidan, bu O. qanchalik musaffo bo‘lsa, ilohiy fayz va inoyat shunchalik ko‘p va yaxshi jilolanadi. Oyina – ilohiy mazhar bo‘lgan komil inson qalbi. Chunki O. deganda, Allohning zoti, sifatlari va ismlariga ishora qilinadiki, ularning barchasi komil inson qalbida aks etadi. Tasavvuf ahli nazdida, dunyo va nafs g‘uborlaridan poklangan ko‘ngil O.day musaffo bo‘lib, unda yor − Haq jamoli jilvalanadi:

Desang, Navoiy, jon aro mahbub bo‘lg‘ay jilvagar,
Avval ko‘ngul ko‘zgusidin mahv ayla
naqshi mosivo.

Mosivo − Xudodan boshqa narsalar, ya’ni mavjudot va maxluqotni bildirib keladi. Shunga muvofiq, naqshi mosivo − dunyoga moyillik, hayotga muhabbatni, boshqacha aytganda, ko‘ngilning nafs istak-xohishlaridan poklanmaganini bildiradi, shuning u-n ham baytda ulug‘ shoir aytyaptiki: “Ey Navoiy, agarda mahbubang (ya’ni Alloh taolo) joning ichidan joy olishini istasang, avvalo ko‘ngil ko‘zgusini dunyo hoy-u havaslaridan musaffo ayla”. Zero, Alloh o‘zidan boshqa barcha narsaning xayolidan qutulib, nafs gardi-yu dunyo g‘ubori qolmay shaffof bir holga kelgan ko‘ngilgagina tashrif buyuradi.

Shuning u-n ham boshqa bir baytida ishq aro ko‘nglingni tuzatsang, yor aksi rost jilvalanadi, ko‘zgu egri bo‘lsa, yor aksini ham egri ko‘rsatadi, deydi:

Ishq aro ko‘nglung tuzatkim, rost solg‘ay aks yor,
Ko‘zgu egri bo‘lsa, solur aksini ruxsor ko‘j.

Allohga nisbatan olganda esa butun borliq – ulkan bir ko‘zgu: Allohning jamoli-yu kamoli va sifatlari har ashyoda u yoki bu darajada aks etadi. Qudsiy bir hadisda aytilishicha, Allohda o‘z jamolini ko‘rish istagi tug‘iladi va husniga ko‘zgu qilib mavjud olamni yaratadi.

Umuman, O. timsoli N. dunyoqarashi va badiiy mahorat sirlarini ochishda o‘ziga xos o‘rin tutadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик, 3-жилд. – Т., 2011; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва таъбироти ирфоний. – Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.); Ризоқулихон Ҳидоят. Риёз ул-орифин. Теҳрон, 1388 (ҳ.-ш.); Очилов Э. Бир ҳовуч дур. – Т., 2011; Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005.*

E.O., M.A.

OYINAYI ISKANDARIY (f.-t.) – Iskandar oyinasi. Sharq xalqlari adabiyotida “Oyinayi jahonnoma” yoki “Oyinayi jahon”, ya’ni jahonni ko‘rsatuvchi oyina, deya ta’riflangan bu ko‘zgu haqida turli rivoyatlar mavjud. Ulardan birida aytilishicha, Iskandar Iskandariya (Aleksandriya) shahrini barpo etgan mahallar bu yerda istiqomat qilayotgan zamonasining mashhur olimlari Balinios, Hermes va Valinioslarni chorlab, bir oyna yasattiradi. Uni shunday baland bir yerga joylashtiribdiki, shaharga bir oy uzoqlikdagi masofada bo‘lgan kemalar ham unda yaqqol ko‘rinar ekan. Agar kelayotgan dushman kemasi bo‘lsa, oynani quyosh nurlariga to‘g‘rilab, uni mahv etish mumkin bo‘larkan. Iskandar tomonidan ustozi Arastuga tayinlab, yasattirilgan mazkur oynaning bir kecha qo‘riqchilar uxlab yotganda dushmanlar tomonidan o‘g‘irlab ketilganligi va dengizga tashlab yuborilganligi rivoyatlar orasida uchraydi. Yana bir rivoyatga ko‘ra, ko‘zguning Hind hukmdori Qayd tomonidan Iskandarga hadya sifatida yuborilgan to‘rt qimmatbaho buyumdan biri ekanligi aytilgan. Shakli aylana va tekis bo‘lgan bu oynaning har ikkala tomoni ham manzara aksini ko‘rsatish xususiyatiga ega bo‘lgan. Tarixiy manbalarning ma’lumot berishicha, dunyo mo‘jizalaridan biri sanalgan Iskandariya fonari (chirog‘i) b-n Iskandar oyinasi o‘rtasida bog‘liqlik bo‘lishi mumkin. Faros nomi b-n mashhur bo‘lgan bu fonar shaharni yoritgan, shuningdek, uzoqdagi kemalarga ham o‘z yorug‘ligi b-n yo‘l ko‘rsatib turgan. Uning XIII–XIV asrlarda ham mavjud ekanligi haqida ma’lumotlar uchraydi. Oynalarning qadimda tayyorlanish sirlari oshkor bo‘lmaganligi sababli, oddiy kishilar tasavvurida ular sehr va tilsim manbayi sifatida tushunilgan. O‘z davrida (mil av. III asr) yuksak texnik mahorat mahsuli hisoblangan mazkur fonar b-n bog‘liq afsonalarni shu b-n ham izohlash mumkin.

Ma’lumki, tasavvuf istilohi sifatida oyina, ya’ni ko‘zgu ilohiy mazhar bo‘lmish komil inson qalbini anglatadi. Chunki oyna deganda, “Allohning zoti, sifatlari, ismlariga ishora qilinadi”ki, ularning barchasi komil inson qalbida aks etadi. U dunyo tashvishlaridan uzilgan, barcha yomon o‘y-xayollardan yiroq bo‘lgan, sof ko‘ngil timsoli hamdir. Shu sababli, N. “S.I.” dostonida ayoqchiga murojaat qilarkan, o‘ziga oynadek toza, tiniq qadah berishini so‘raydi.

Ayoqchi, tut oyinagun sog‘are,
Ne sog‘arki, mir’oti Iskandari!

“Mir’oti Iskandariy” – Iskandar oynasi haqida N. dostonning 52-bobida qiziq bir rivoyatni keltirgan. Unda tasvirlanishicha, Chin xoqoni Iskandar b-n jang-u jadalsiz, do‘stona sulh tuzadi va uning sharafiga shohona ziyofat uyushtiradi. Mazkur ziyofatda xoqon jahongirga qimmatbaho sovg‘alar, go‘zal kanizaklar va bir sehrli ko‘zgu ham in’om qiladi. Bu ko‘zguning ikki yuzi bo‘lib, har biri o‘ziga xos tilsimga ega edi. Ya’ni, uning bir yuziga shoh huzurida yolg‘on so‘zlayotgan yoki gunohkor kishi qarasa, aksi ko‘rinmasdi. Aksincha, qalbi toza, gunohsiz inson qarasa, chehrasi namoyon bo‘lardi. Ko‘zguning ikkinchi yuzi esa, majlisda ko‘p ichib, mast bo‘lib qolgan kishilarning qiyofasini ko‘rsatib

berardi. Yuqoridagi baytda ham N. ayoqchidan mana shunday xislatga ega bo‘lgan may keltirishini so‘raydi. Demak, mumtoz she’riyatda, jumladan, N. ijodida ham Iskandar oynasi yaxshi va yomonni, rost va yolg‘onni, do‘st-u dushmanni bir-biridan ajratuvchi o‘ziga xos timsol sanaladi. “L.M.” dostonining “Ishq ta’rifida...” bobida bu obrazning yana boshqacharoq bir talqiniga duch kelamiz. Unda ishq oyinayi jahonnamo b-n qiyoslanadi:

Ey ishq g‘arib kimiyosen!
Bal oyinayi jahonnamosen!

...Ul oyinakim, – Skandar etti,
Po‘loddin o‘yla paykar etti

Kim, Rum aro chekib manori,
Boqturdi ani Farang sori.

Chun berdi jamolig‘a kushoyish,
Ko‘rguzdi Farangdin namoyish.

Topqoch ani bu sifat ziyoliq,
Toqti otig‘a jahonnamoliq.

Bu nav’ki, ul demish emasdur,
Menkim, ne dedim – hamon-u basdur.

Xurshedi jahonkushoy sen-sen!
Mir’oti jahonnamoy sen-sen!

Ko‘rinib turibdiki, N.ning ilmiy farazi bu parchada yuksak parvozlarga ko‘tarilgan: Iskandar o‘zi po‘latdan yasagan Oyinani Rumda baland minora tepasiga o‘rnatib, o‘sha yerdan Farangiston, ya’ni Yevropaga qaratib qo‘ygan va u yerda bo‘layotgan voqea-hodisalarni Rumda namoyish ettirgan.

N. “T.A.H.” asarida Balinos hakimga tasvif berar ekan, aftidan shu minorani nazarda tutib, quyidagilarni yozadi: “Iskandariya minorasi tilisminkim, farang ahli qilg‘on (ish) anda ko‘runur erdi, Balinos yasab erdi”. N. lirik janrdagi asarlarida ham Iskandar ko‘zgusiga murojaat etgan. Jumladan, “F.K.”dagi g‘azallarning birida shunday bayt bor:

Skandar ko‘zgusi-yu jomi Jam ichra ko‘r,
ey shahkim,
Seni go‘r og‘zig‘a tortar kamandi saydi Bahromiy.

Quyidagi baytda bu obrazga ma’shuqa go‘zalligining madhi vazifasi yuklangan bo‘lsa:

Labingdir jomi Jamshid-u yuzung
– mir’oti Iskandar,
Musallamdur sanga husnuu jamol
ahlig‘a sultonlig‘.

Boshqa bir baytda lirik qahramon ma’shuqa Raxshining izini Iskandar ko‘zgusi o‘rnida ko‘radi:

Iskandar-u Jamliqdur ishqingda Navoiyga
Kim, raxshing iz-u na’lin ko‘zgu bila jon etmish.

O.I. N.ning ijodiy merosida mir’oti gitinamo, oyinayi jahon, mir’oti jahonnamoy, mir’oti Iskandar, oyinayi Chin tarzida ham uchraydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ҳолоти Саййид Ҳасан Ардашер. ТАТ. 10 жилдлик 10-жилд. – Т., 2011; Искандар Пала. Мумтоз шеърият қомусий сўзлиги. – Истанбул, 2004; Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005.*

M.A.

OYINAYI ROSTGO‘ – Q.: Oyinayi Iskandariy.

OLAM – (dunyo, jahon, koinot). Insonni o‘rab turgan borliq. Tasavvufda Allohdan boshqa hamma narsaga O. deyiladi va olami amr, olami arvoh, O.dunyo, O.i kubro, O.i sug‘ro, O.i xalq,

O.i shahodat, O.i jismoniy, O.i ruhoniy kabi bir necha O.lar tushunchasi ilgari suriladi. Amr O.i b-n xalq O.i orasidagi farq amr O.ining lahzada bor bo‘lganligidadir. Inson katta O. ichidagi kichik O., deb ham yuritiladi. O. so‘zi moddiy dunyoni anglatganda keng ma’noda, ma’naviy-ruhiy holatlarni ifodalaganda torroq ma’noda tushuniladi. N. asarlarida O. so‘zi ishtirokida olamgard, olamoro, olamafro‘z, olamgir, olami dun, xojayi olam, olami kavn-u fasod, olam xalqi, olam yuzi, rasvoyi olam, olami foniy, olam asbobi, olami kubro va h.k.lar uchraydi. Biroz farqli ma’nolari bo‘lsa-da, O.ning sinonimlari sifatida: kavn, dahr, dunyo, dor ul-havodis, dor ul-g‘urur, jahon kabi so‘zlar ham qo‘llanadi. N.ning bu O.ga nisbatan qarashi o‘ta hassos va talablari ham juda yuksak. Foniy va o‘tar dunyo bo‘lgani u-n unga bog‘lanib qolishni, har nokas oldida past ketishni, berilgan umrni mehnat qilib, halol yashashni, “yaxshilik bilan ot” qoldirishni saodat deb biladi. Daho shoir O. ahlidan vafo ko‘rmagani, bu O.ning baqosi yo‘qligini tez-tez tilga olsa-da, O.ahlini bir-biriga do‘st bo‘lib yashashga undaydi:

Olam ahli bilingizkim, ish emas dushmanlig‘,
Yor o‘lung bir-biringizgaki, erur yorlig‘ ish.

O.lar soni turli manbalarda turlicha qayd etilgan. N.da “o‘n sakkiz ming olam” borligi va yorning ham yoshi doimo o‘n sakkizda ekani zikr etiladi. Yorning o‘n sakkiz ming O. tashvishi b-n band bo‘lishi va doimo husni o‘n sakkiz yoshda barqaror turishi uning inson emas, ilohiy qudrat sohibi ekaniga dalolat qiladi.

O‘n sakiz ming olam oshubi agar boshindadur,
Ne ajab, chun sarvinozim o‘n sakiz yoshindadur.

Yoki:

Navoiy o‘n sakiz ming olam ichra
bor esa rasvo,
Tong ermas, chunki bo‘lmish
mahvashining yoshi o‘n sakkiz.

N. na’t g‘azallaridan birida tajohuli orif san’atini qo‘llab, quyosh har kun Payg‘ambar (s.a.v) eshigining tufrog‘ini “yuzimga surtarmikanman?”, deb “charx qasridan” bu olamga tushadi, deydi.

Yuz eshiging tufrog‘ig‘a surta olg‘aymenmu deb,
Charx qasridin quyosh har kun tushar olam aro.

Shuningdek, bu vafosiz O.dan ham uning pastkash odamlaridan ham vafo kutmaslikni uqtiradi:

Vafo aylab, vafo ko‘z tutma olam dunlaridinkim,
Vafosiz keldi olam dunlari ham olami dundek.

Bu O.ga beparvo va ozod bo‘lish u-n rind, zohid, orif, ayniqsa, oshiq bo‘lish kerakligi N.ning bir qator baytlaridan anglashilib turadi:

Olam aro toki tirikdur kishi,
Haq bila bo‘lmoq erur ansab ishi.

Haq tilar bo‘lsang, Navoiy, silk dunyodin etak,
Ishqing o‘lsa pok, o‘zni qo‘yma bu murdor aro.

Rind bo‘lg‘an ikki olam o‘ynag‘ay bir dav ila,
Bo‘lmag‘ay lekin xaroboti fano qalloshidek.

N. bu O.ning foniyligi va odamlarning vafosizligiga ishora qilib, O.dan boqiylik istagan odamni ablah va O.ahlidan vafo kutganni ahmoq deb ataydi:

Ablah oni bilki, olamdin baqo qilg‘ay tama,
Ahmoq ulkim, olam ahlidin vafo qilg‘ay tama.

N.ning nasriy asarlarida O. vositasida iboraviy so‘zlar ham ko‘p uchraydi. “...arvoh Haqqa yaqinlashib soflansa, olam jismlariga toat nuri bilan ta’sir qiladi”. “Ul chun olam asbobidin mujarrad ermish”, “...va olam atrofidin so‘xtalar kelurlar...”.

Ad: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик,2-жилд. – Т., 1983.*

S.R.

“OLAM MA’MURLIG‘I ALARDIN...” – adabiyotshunos B.Rajabovaning risolasi (T., “Turon zamin ziyo”, 2014. 40 b.). Ushbu kitobda N. “M.Q.” asarida yozgan “Dehqonlar zikrida” ta’rifi ijtimoiy fikr va poetik talqin hamda an’ana va yangilik mezonlari asosida tahlil etilgan. Asardagi mazkur fiqra n.shunoslar ta’biri b-n aytganda, N. nasriy qasidasi va ushbu ta’rif – nasriy qasida b-n ko‘plab ijodkorlarning bobodehqonlar haqidagi fikrlari, ta’riflari qiyosiy-tarixiy usulda tadqiq etilgan. Kitob muqaddimasi yer sultoni bobodehqonlar haqidagi bir didaktik rivoyat syujeti bilan boshlangan. N. “dehqon” atamasini o‘z asarlarida podshohlarning huquqiy jihatdan tobelari – to‘rt guruhning so‘nggisi, ya’ni ziroatchilarga nisbatan qo‘llash bilan birga ushbu atamani Alloh – Yaratuvchi ma’nosida ham ishlatgani izchillik b-n dalillanib borilgan. Muallif N.ning “M.Q.”da dehqonlarga bergan ta’rifini keltirgach, mazkur mavzuga doir ko‘plab mumtoz manbalarga, jumladan, “Avesto”, Firdavsiyning “Shohnoma”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Sa’diyning “Guliston”, Nizomiyning “Iqbolnoma”, Jomiyning “Devon”i, Mavlono Rumiyning “Masnaviy”, Nosir Xisravning “Safarnoma”, Amir Temurning “Temur tuzuklari”, D.Samarqandiyning “Shoirlar bo‘stoni”, A.Samarqandiyning “Matla’yi sa’dayn va majmayi bahrayn”, M.Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi”, Abay she’rlari, A.Sog‘uniyning “Tarixi Muhammadiy” kabi bir necha o‘nlab kitoblarga murojaat qiladi, ularni qiyoslaydi va e’tiborli xulosalar chiqaradi. Kitob so‘nggida Amir Temur tuzgan davlatning iqtisodiy mustahkamligida katta rol o‘ynagan dehqonlar haqida tarixchi olimlar, xususan, Ruyi Gonsales de Klavixo, Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Boburlar yozib qoldirgan qimmatli fikr-mulohazalar o‘rin olgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

S.O‘.

OLI ABO – hayoti o‘rnak va namuna bo‘lgan besh kishi, bularning birinchisi Muhammad (s.a.v.), qizlari Bibi Fotima (r.a.), kuyovlari Hazrati Ali (r.a.) va uning o‘g‘illari Hasan (r.a.) hamda Husayn (r.a.)lardir. O.A.ni Muhammad (s.a.v.) va u kishining eng yaqin do‘stlari, haqiqiy izdoshlari bo‘lgan to‘rt xalifa – hazrati Abu Bakr (r.a.), hazrati Umar (r.a.), hazrati Usmon (r.a.) va hazrati Ali (r.a.), deb biluvchilar ham bo‘lgan.

Musulmonlar orasida tez-tez tilga olinadigan O.A. yoki “Ahli bayt” iborasi ham N. she’riyatidan o‘rin olgan.

Bo‘lmag‘ay erdi muyassar “Xamsa”,
ya’ni panj ganj,
Qilmasa erdi madad holimg‘a besh oli abo.

Bu fikrni “Agar payg‘ambar va to‘rt xalifa madadkor bo‘lmasa, “Xamsa” yozish menga nasib bo‘lmasdi”, – degan mazmunda ham tushunish mumkin. Lekin O.A. iborasi ahli dil, ko‘ngil odami, ko‘ngil tilini anglovchi ma’nolarini ham ifodalagan. Shuning u-n N.ning e’tirofida “X.” dostonlarini yozishga ta’sir ko‘rsatgan salaflariga ishora ham yo‘q emas.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик. 6-8-жилдлар, – Т., 2011; Жумаева С. Ўзбек мумтоз шеъриятида рақам рамзлари ва уларнинг маъно талқини. – Т., 2010.*

S.J.

OLIY USLUB – mumtoz adabiyotda mavjud bo‘lgan uslub. Tantanavor va ko‘tarinki ohang, yuksak tushunchalarning go‘zal ifodasi, o‘ziga xos salobatli ritm, shuningdek, jimjimadorlik, fikrning murakkab obrazlar orqali ifodalanishi, turli badiiy san’atlar, poetik figuralarning qo‘llanilishi, dabdabali epitetlar, mubolag‘ali ta’rif-tavsiflar mazkur uslubga xos asosiy xususiyatlar

hisoblanadi. Bu uslubda yozilgan asarlar matn kompozitsiyasiga ko‘ra ham ajralib turadi. Ularda matn ko‘proq kombinatsiyali tamoyil asosida tuziladi va murakkab tuzilishga ega bo‘ladi, matn tarkibida uzun-uzun qo‘shma sintaktik konstruksiyalarning katta o‘rin tutishi kuzatiladi. O.U.ning bayon tarzi ham sodda uslubnikidan farq qiladi.

N. ijodida o‘sha davr an’analari, xususan, davr uslubining ta’siri o‘z aksini topgan. Uning bir qator asarlari, jumladan, “M.”dagi maktublarning katta qismi, “M.Q.”, “V.” kabilar oliy uslubda yozilgan. Ularda chuqur mazmun va yuksak tushunchalar hamda fikrlar go‘zal tashbehlar, chiroyli hamda yoqimli so‘z va iboralar yordamida izhor qilinganini ko‘ramiz. Mazkur asarlarda mumtoz adabiyotga xos “fasohat”, badiiy matnning birin-ketin keluvchi, vaznga, ritmga, ohangdoshlikka ega bo‘lgan va shu sababli o‘quvchiga xuddi musiqa singari ta’sir qiluvchi yoqimli jumlalar silsilasidan iborat bo‘lgan “salosat”, shuningdek, “itnob”, “e’not”, “tanosub” singari poetik figuralar katta o‘rin tutadi. N. o‘z asarlarining yuksak badiiyatini, o‘quvchini lol qoldiradigan go‘zalligini ta’minlashda O.U. imkoniyatlaridan samarali foydalangan, chiroyli badiiy lavhalar yaratgan. Uning kuz faslining o‘ziga xos manzaralari tasvirlangan quyidagi satrlari bunga misol bo‘la oladi: “Chamanning ruxsori Yusuf ishqida Zulayxo uzoridek kohiy va xazon yeli ham oning damodam sovug‘ ohi kibi nomutanohiy bo‘ldi. Qaro yig‘ochning sarig‘ barglarin yel uchurg‘oni tutundin uchqunlar ayrilg‘onning misolin va qizil tolning kohiy yafrog‘larin ba’zi jismida qolg‘ay, shingarf xututi uzra za’faron afshoniy qilg‘ondin nishona ko‘rguzdi. Murtafe’ shoxlar uza sham’ shu’lasidek barglar shakli sharhig‘a bo‘ston muzakkirlari “Valaqad zayyanas-samaad-dunyo bimasobih” karimasi b-n mutakallim va ul shu’laoso barglar aksi shishai halabiyda oynayi Chiniy kabi zulol ichra tushgandin chaman qushlari “Ka mishkotin fiz-zujojah” savtig‘a mutarannim”.

O.U.ga xos xususiyatlar N. asarlarining hukmdorlar b-n bog‘liq o‘rinlarida yaqqol namoyon bo‘ladi, xususan, Sulton Husayn madhiga, shaxsiga bag‘ishlangan qismlar tantanavorligi, mubolag‘ali ta’rif-tavsiflarning mo‘lligi, dabdabali epitetlar, sifatlashlarning qo‘llanishi b-n ajralib turadi. Bunda muallif madhning turli usullarini itifoda etadi. M-n, quyidagi parchada hukmdor shaxsi diniy tushunchalar, oyat va hadislar vositasida vasf etilgan:

“Bari shohlar ichra zoti aning,
Shahanshohlar ichra sifoti aning.
Maloik aro keldi ruh ul-amin.
Rasul xaylida sayyid ul-mursalin.

Sultonekim, “As-sulton-u zillullohi fil arzi” javohiri bila sun’ ilki humoyunfol chatri hoshiyasin murassa’ qildi; xoqonekim, “Avbob ul-muluk qiblat ul-hojot” koshisi bila qadr me’-mori... oliy dargohi kitobasin muzayyan etti; sohibqironeki, zafarpaykar livosini “inna fatahno laka fathan mubiynan” gulistonidin esgan nasimdin o‘zga nima mutaharrik qila olmas...”. Shu o‘rinda N. nasriy uslubiga xos bir jihatni qayd etib o‘tish lozim. O.U.ga xos unsurlar, bu uslubda yozilgan parchalar N.ning faqat yuqorida tilgan olingan asarlaridagina emas, boshqa uslubda yaratilgan asarlarida ham uchrab turadi. Bu xususiyatni N. risolalarida ham ko‘rish mumkin. Jumladan, “M.L.”dagi hamd va na’t, shuningdek, so‘z ta’rifiga bag‘ishlangan qismlar, turkiy til ta’rifi va tavsifi bayon etilgan o‘rinlar oliy adabiy uslubda bitilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Вақфия. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Муншаот. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

Q.E.

OLIM Sultonmurod (1954, Buxoro) – n.shunos, tarjimashunos, publitsist. 1976-y.da ToshDU (hozirgi O‘zMU) ni tugatdi. Shundan keyin uning mehnat faoliyati O‘z R FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti b-n bog‘landi – 1976-y. dan 1994-y.gacha mazkur ilm dargohida ilmiy tadqiqot olib borib, umidli tarjimashunos sifatida ilmiy-adabiy jamoatchilikka tanildi. 1985-y. da “Navoiy asarlari tarjimasida badiiy san’atlarni qayta yaratish va tabdil etish muammolari” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Mavzu yuzasidan “F.Sh.” dostonining ruscha, tojikcha va ozarbayjoncha, shoir tuyuqlari va ayrim g‘azallarining ruscha tarjimalarini tahlil etgan. Sof ilmiy yo‘nalishda yuzlab ilmiy maqolalar, “Lermontovning o‘zbek tarjimonlari” (1989, hammualliflikda), “Navoiyning she’rshunos shogirdi” (1991), “Navoiy asarlari tarjimalari” (1991), “Ishq, oshiq va ma’shuq” (1992), “Naqshband va Navoiy” (1996) kabi risolalar yozdi. Mamlakatimizda N. yili deb e’lon qilingan birgina 1991-y.ning o‘zida u markaziy matbuot sahifalarida ulug‘ shoir ijodi yangicha qarashlar asosida o‘rganilgan 40 dan ziyod ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar b-n chiqib, o‘zini nuktadon n.shunos sifatida namoyon etdi.

O.S.ning “Naqshband va Navoiy” monografiyasida Naqshbandiya ta’limotining N. ijodiga ta’sirini va bu ta’limotga tegishli hayotbaxsh g‘oyalarning mutafakkir shoir asarlarida mavjud badiiy talqinlarning har tomonlama keng va chuqur ilmiy tahliliga keng o‘rin berilgan.

O.S. bir qator maqolalarida N. ijodining ijtimoiy-siyosiy asoslarini ham ochib berishga harakat qildi. Shuningdek, u N.ning Navro‘zga bag‘ishlangan 7 ta g‘azalini sharhlagan va ular ulug‘ shoirning o‘ziga xos navro‘znomasi bo‘lishi mumkinligi borasidagi taxminlarini ham keltirgan.

“Lison ut-tayr”ning qiyosiy poetikasi: sintez, naziraviylik va tarjimaviylik” mavzusida f.f. doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi (2023). Tadqiqotda “L.T.” va “Mantiq ut-tayr”, “X.” o‘rtasidagi mushtarak va nomushtarakligini ochib berishga harakat qiladi va “L.T.” – “shoir ijodining mohiyatini anglash u-n kalit”, – degan asosli fikrni ilgari suradi. Shayx San’on hikoyatini dostonning shariatdan tariqatga va tariqatdan haqiqatga o‘tish tasvirlarini bog‘lovchi halqa degan nihoyatda teran va haqqoniy ilmiy xulosani o‘rtaga tashlaydi: Dissertatsiyada N.ning Attorga munosabati masalasi nafaqat “L.T.”, balki ulug‘ shoirning butun ijodi misolida yalpi holda ko‘rib chiqilgan. Dissertatsiyada ko‘plab irfoniy timsol-tushunchalarga ham aniqlik kiritilgan. O.S. tadqiqotlari u-n xos xususiyat – matn mazmunini teran idrok etish va xalqqa tushunarli shakl-u uslubda yetkazish. U o‘zi kashf etgan ilmiy-badiiy haqiqatlar b-n o‘quvchini ham ommabop yo‘sinda tanishtirishga shoshiladi. “L.T.”ning nega Foniy taxallusi b-n yozganini aniqlashga bag‘ishlangan va dostonning tasavvufiy mohiyatini ochishga yo‘naltirilgan “Munda Foniy o‘lmay ish bo‘lmas tamom” maqolasi o‘z vaqtida shov-shuv bo‘lgani bejiz emas. Bu maqola keyinchalik to‘ldirilib va kengaytirilib, “Ishq, oshiq va ma’shuq” nomi b-n risolaga aylantirildi va adabiy-ilmiy muhitda o‘ziga xos voqea bo‘ldi. O.S.ning ma’naviyat targ‘ibotchisi sifatidagi faoliyati ham diqqatga sazovor. U bir necha yil davomida O‘zbekiston televideniyesida “Ma’naviyat” telekanalini olib bordi. Uzoq yillar Respublika Ma’naviyat targ‘ibot markazi rahbari o‘rinbosari bo‘lib ishladi. Ma’naviyatga doir ko‘plab maqolalar yozdi, radio va televideniyeda chiqishlar qildi, turli tashkilot va muassasalarda ma’ruzalar o‘qidi. Bu borada qator ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy risolalar yaratdi. “Navoiy − yoshlarga” (2008), “14-fevral: sevishganlar kuni emas!” (2012) kitoblari shular jumlasidandir.. Nozikta’b va daqiqnazar adabiyotshunos, sohirqalam va hassos publitsist O.S.ning adabiyot tadqiqi va ma’naviyat targ‘ibi borasidagi ko‘p yillik samarali mehnatlari hukumatimiz va adabiy jamoatchilik tomonidan munosib baholanib, u 2001-y. “Mehnat shuhra-

ti” ordeni b-n taqdirlangan, 1994-y.da O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Xalqaro Ahmad Yassaviy mukofotiga sazovor bo‘lgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Олим С. Навоийнинг шеършунос шогирди. – Т., 1991; Олим С. Навоий асарлари таржималари. – Т., 1991; Олим С. Ишқ, ошиқ ва маъшуқ. – Т., 1992; Олим С. Нақшбанд ва Навоий. – Т., 1996; Олим С. Навоий − ёшларга. – Т., 2008.*

E.O.

OLIMOV Farruxbek Sultonmurodovich (1982, Buxoro) – adabiyotshunos olim, filologiya fanlari d-ri. (DSc, 2023) O‘zMU jurnalistika fakultetining bakalavriat hamda magistraturasida tahsil olgan. O‘zR FA Til va adabiyot (hozirgi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori) instituti aspiranturasida o‘qigan. 2018-y. f.f.d-ri I.Haqqulov rahbarligida “Alisher Navoiyning “Xamsat ul-mutahayyirin” asari badiiyati” mavzusida filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktorlik (PhD) dissertatsiyasini himoya qilgan. Dissertatsiyada N.ning barcha asarlaridagi Abdurahmon Jomiy ta’rif-u tavsifiga bag‘ishlangan sahifalar hamda “Xam.M.”dagi Jomiy timsolini qiyosan tahlil etish orqali mazkur asarning muallif ijodidagi o‘ziga xos o‘rni aniqlanib, asarning ikkala buyuk tarixiy shaxs hayoti va ijodi, o‘zaro munosabatlari doirasini o‘rganishda o‘ta muhim manba ekani isbotlangan, asar badiiyati hamda muallifning nasrnavislik mahorati va uslubiy o‘ziga xosliklari yoritilgan.

“Xam.M.”ning janr xususiyatlari, umumiy va an’anaviy manoqiblardan farq qiluvchi o‘ziga xosliklari, manoqibning bosh xususiyati ideal hisoblangan real shaxs qahramon qilib olinishi b-n belgilanishi, komil inson g‘oyasi hayotiy asosga ega ekani o‘z isbotini topgan. “Xam.M.”ga manba bo‘lgan shaxsning ma’naviy fazilatlari, xususan, pirlik sifatlari ilk bor tadqiq etilgan.

Adabiyotshunos o‘z ishlarini davom ettirib, “Alisher Navoiy manoqib-holotlarida badiiy-publitsistik mahorat” mavzusida doktorlik (DSc) dissertatsiyasini himoya qildi. Unda N. asarlarida zamondosh insonlar timsolini yaratishga asos bo‘lgan omillar manoqib-holotlar misolida atroflicha ochib berilgan.

Ad.: *Олим Ф. Миллий сўз. – Т., 1999; Олим Ф. Тамаддун. – Т., 2008; Олим Ф. Навоий наздида комил инсон. – Т., 2015.*

S.O‘.

“OLIM-U JOHIL AGAR CHI HAR DU JINSI MARDUMAND...” – N.ning “D.F.”ga kiritilgan qit’asi:

Olim-u johil agar chi har du jinsi mardumand,
Farq boshad dar miyon az osmon to xoki pax,
Durru jola har du az abrandudar hay’at shabih,
On ravad bar toji shaxin lek dar xoki siyah.

She’r avvalida aytilganidek, olim ham, johil ham inson. Ularning har ikkalasi odam toifasidan. Lekin oralaridagi farq osmon b-n yer qadardir. Chin olimni nurli kunga qiyoslaydigan bo‘lsak, johil qorong‘u tun timsoli. Olimning matlabi – haqiqat, ezgulik, odamiylik, hurlik. U hayotda ilm-u hikmatning qo‘li baland bo‘lsin, deydi. U: “Ey inson, o‘zingni angla, qadringni arzon sotma, senga non-tuz bergan xalqingni sevgil, joningni Vataningdan ortiq ko‘rma”, – deb o‘rgatadi.

Haqiqiy olim mana shular u-n zahmat chekadi, odamlarning o‘zaro ittifoqda yashashi, ulug‘ orzular yo‘lida hamjihat kurashishlarini istaydi. Johil-chi? U burnidan narini ko‘ra olmaydi. U jaholatning quli. Uning hayotini gumrohlik, vahshiylik boshqaradi. Qit’ada bular quyidagi tamsiliy so‘zda yoritilgan:

Durru jola har du az abrand-u dar xay’at shabih,
On ravad bar toji shahin lek dar xoki siyah.

Tarj.: Dur va do‘l – har ikkisi ham bulutdan paydo bo‘lib, zohiran bir-biriga o‘xshasa-da, dur podshoh tojiga chiqadi, do‘l esa qora tuproqqa kiradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Девони Фоний. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Ҳаққул И. Касби амол ўзни танишдир. – Т., 2021.*

I.H.

“OLLIMDA TABIBI CHORASOZIM HAM YO‘Q...” – N.ning “B.V.” devonida keltirilgan ruboiy:

Ollimda tabibi chorasozim ham yo‘q,
Yonimda rafiqi dilnavozim ham yo‘q.
Tegramda anisi jongudozim ham yo‘q,
Boshimda shahi bandanavozim ham yo‘q.

N.ning elimiz orasida mashhur g‘azallaridan biri. “Mehr ko‘p ko‘rguzdim, ammo mehribone topmadim”, deb boshlanadi. “Topmadim”, – ulug‘ shoirning holati, munosabati va iqrorini aks ettiradigan bosh so‘zlardan biri. Oshiq urinmasa, izlamasa, ranj chekdim”, deyolmaydi. N. vafo va sadoqatdan so‘z ochadimi, mehr-shafqatdan bahs yuritadimi yoki do‘stlikdan gapiradimi, ko‘p paytda “Topmadim!” deydi. Yuqorida o‘qiganimiz ruboiydagi ta’kid – “yo‘q, yo‘q”lardan ko‘zlangan asosiy maqsad ham “topmadim, topilmadi” demoqdir.

Kimligidan qat’iy nazar birovning oldida dardiga darmon bo‘lguvchi bir tabib, ko‘nglini ko‘tara oladigan do‘st, atrofida joni achiydigan mehribon sirdosh, qoshida mard bir muhofiz topilmasa, uning qismati, albatta, kuyinishga, boringki, achinishga loyiq. Avvalo, shunday kishilarning hayotda mavjudligi, hatto ko‘pligidan hech ko‘z yumib bo‘lmaydi. Demak, o‘zining ahvol-ruhiyati orqali shoir o‘zgalarning ahvoliga ham diqqatni tortgan. Chunonchi, shafqat, muruvvat, himmat va ma’naviy himoyaga muhtoj g‘arib-u g‘urabolarni hech unutmang demoqchi bo‘lgan. Ruboiy qahramonining niyati aslida bu emas. Bandaning bandaga muhtojlik “bosqich”laridan u allaqachon o‘tib ketgan.

O‘tmish davrlarda Haq yo‘lchilariga oshiq, darvesh, faqir, orif, miskin, qalandar deyilgan. Shulardan birortasi ham dunyo ahli yoki “ahli surat” safidan “tabibi chorasoz”, “rafiqi dilnavoz”, “anisi jongudoz” va “shahi bandanavoz” topiladi yoki topilsa edi, deb umid qilmagan. Aksincha, bunaqa umidvorliklarni ildiz-ildizidan quritishga urinishgan. N.da ham shunday. G‘azallaridan birida shoir ahli zamondan aloqa va ulfatchilik shu qadar uzilganki, biror bir zamon o‘zim b-n o‘zim ham kelisholmayman deydi:

Bo‘lmish andoq munqati’ ahli zamondin ulfatim,
Kim, o‘zum birla chiqishmas ham zamone suhbatim.

Bashariy irodaning kuchsiz va mo‘rtligini chuqur anglab, ilohiy iroda sohibi bo‘lishga yetishmoq oriflikning ilk shartlaridandir.

Ad.: *Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик, 3-жилд. – Т., 2011.*

I.H.

“OLMAVU GULOB QAYNATURG‘A...” – N.ning “B.V.” devoniga kiritilgan qit’a:

Olmavu gulob qaynaturg‘a
Tab’i ermas ulug‘ qazong‘a rog‘ib.

Demak bu qazon kichikdur osru,
Ermas munga himmat ahli tolib.

Kim ruh-u g‘izosining qazoni,
Mundin ham ulug‘ emas munosib.

“Olma-u gulob qaynaturg‘a” mashg‘ul kishi ham, har qalay, hojat chiqaruvchi odam bo‘lgandir. Ammo u kichik qozonda “olma-u gulob” qaynataverib tabiatan maydalashib qolgan. Ya’ni tab’i “ulug‘ qazong‘a” rag‘batni yo‘qotgan. Bu ham baxillik, himmatsizlikning bir

ko‘rinishi. Shuning u-n bag‘ri keng va saxovatli odamlar tab’ qozoni kichiklarga ichdan yaqinlik sezmaydilar:

Demak bu qazon kichikdur osru,
Ermas munga himmat ahli tolib.

Bu – “himmat ahli”ning munosabati. Ta’bi tor kishining ruhi ham, shubhasiz, o‘shanga yarasha bo‘ladi.

Kim ruh-u g‘izosining qazoni,
Mundin ham ulug‘ emas munosib.

She’r tugasa ham “kichik qazon” muammosidan fikran ajralib bo‘lmaydi. “Kichik qazon” – ma’naviy torlik, qolaversa, baxillik ramzi. Torlik – illat, odam ongiga illat urug‘larini sochadi. Demak, tabiatan “ulug‘ qazong‘a” rag‘bat b-n yashamoq kerak.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Ҳаққул И. Касби камол ўзни танишдир. – Т., 2021.*

I.H.

OLTI JIHAT – olti taraf: Sharq, G‘arb, Shimol, Janub, Yuqori va Quyi tomonlar. N.ning quyidagi baytida “olti jihat” birikmasi aynan dunyo tomonlari ma’nosida ishlatilgan:

Adudur olti jihatdin manga chu yetti falak,
Ne sud yoshim agar oltmish va gar yetmish.

Shoir dostonlarida ham O.J. dunyo tomonlari ma’nosida qo‘llanilgan. Quyidagi misralarda koinot mukammalligi to‘rt unsur, olti jihat va yetti ko‘k vobastaligi natijasi, deb qaraladi:

To‘rt unsur, yetti ko‘k, olti jihot,
Nodir-u oliy asosi koinot.

Muhammad (s.a.v)ning Me’roj voqealari tasvirlangan o‘rinlarda O.J. yoki olti taraf birikmalarini qo‘llash orqali N. Payg‘ambar (s.a.v)ning ko‘kka ko‘tarilishi asnosida barcha moddiy narsalardan xalos bo‘lgan holda Alloh vasliga musharraf bo‘lganliklariga ishora qiladi:

Tanidin to‘rt gavhar naqshi borib,
Bo‘yi olti jihat to‘nin chiqorib.

Yoki:

Ne to‘rt asldin ko‘ngliga yorliq,
Ne olti tarafidin xabardorliq.

misralarida ana shu holga ishora bor.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-жилдлар. – Т., 2011; Жумаева С. Ўзбек муттоз шеъриятида рақам рамзлари ва уларнинг маъно талқини. – Т., 2010.*

S.J.

OLTOYI – qizil tulki, oltoy tulkisi va uning terisidan ishlangan po‘stin.

Ko‘r Navoiy masnadin ishq ichrakim,
Gulxan aro Shu’la oltoyi-u kullardur
anga sinjobdek.

Maz.: Ishq bog‘i aro N. egallagan martabani ko‘r: uning jismi hajr gulxanining shu’lasi aro oltoyi qizil tulki terisiday, kullari esa sinjob (kulrang olmaxon) ga o‘xshaydi.

Ravshan aylar shu’la ustidin ko‘rungan dudni,
Mahvashim egnida oltoyi bila boshida qish.

Mahvashning egnidagi oltoyi (oltoy qizil tulkisining terisidan ishlangan po‘stin) va boshidagi kish (qunduz terisidan ishlangant qora telpak)i firoq o‘tida yonayotgan jismdan hosil bo‘layotgan tutunni yanada ravshan qilmoqda, ya’ni ma’shuqaning liboslari shu qadar o‘ziga yarashganki, rashk va sog‘inch iztirobida qolgan oshiqni yanada kuydirib, battaroq hasrat o‘tida yondirmoqda.

Qiziq kul tobi yo‘q onchoki sinjob,
Yo‘q oltoyicha yong‘on shu’lag‘a tob.

O‘tdan qolgan qiziq qo‘rning sinjobchalik (ya’ni silovsin, mo‘yi o‘siq, olmaxon terisidan tikilgan po‘stin) ham issig‘i yo‘q, yonib turgan shu’la esa oltoyicha (ya’ni, oltoy qizil tulkisining terisidan ishlangan po‘stin) ham iliqlik bermas edi.

Ko‘rinadiki, N. asarlarida qo‘llanilgan oltoyi libos nomi o‘laroq qo‘llanilib, sinjob, kesh singari kiyimlar b-n birga oshiq va ma’shuqaning ishq aro turli martabalarini ko‘rsatishga xizmat qilgan. Bunda ular rang belgisiga ko‘ra o‘zaro poetik manzara hosil qilib, lirik qahramonning ruhiy kechinmalarini yorqinroq ifodalagan.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Навоий асарлари луғати. Тузувчилар Порсо Шамсиев, Собир Муталлибов. – Т.,1972.*

A.A., S.O‘.

OMON (XVII asr oxiri – XVIII asr boshlari, Xorazm) – shoir. Sharq adabiyoti, xususan, Nizomiy va N. ijodidan bahramand bo‘lib, ular asarlaridan ilhomlangan. Bu haqda she’rlarida shunday baytlarga duch kelamiz:

Tut sadaf yonglig‘ qulog‘ingda Nizomiy so‘zlarin,
Bahri tab’ingga agardur nazmi durbor orzu...
Benavolarga navo etmay Navoiy lutfidin,
Etsa ta’sir aylamas qonuni guftor orzu.

An’anaviy mavzularda qalam tebratish b-n birga, jamiyatdagi yangilanish va o‘zgarishlar haqida ham she’rlar yozgan. Ijtimoiy hayotdagi adolatsizliklar, amir-amaldorlarning zulm-u zo‘rligi, mehnatkash xalq ahvolining nochorligini ham fosh etgan. M-n:

Xarobobod ul mulk-u diyor o‘lsa ajab ermas,
Shahanshoheki, zulmin kosid-u adlin rivoj etmas.

O‘z davrining peshqadam shoiri bo‘lgan O. devoni bizgacha yetib kelmagan. Tarjimayi holi haqida ma’lumotlar ham saqlanib qolmagan. Uning Sherg‘ozixon (hukmronlik yillari 1715–27) davrida yashagani ba’zi she’rlaridagi ishoralardan ma’lum bo‘ladi. Xorazmlik adabiyotshunos Ayyomiy turli bayozlarda bir qator she’rlarini aniqlagan.

Ad.: *Айёмий. Ўт чақнаган сатрлар. – Т., 1983.*

D.G‘.

OMON MATJON (taxallusi; asl ismi-sharifi Matchonov Omon) (1943, Xorazm – 2020, Toshkent) – Hamza nomidagi O‘zbekiston Davlat mukofoti laureati (1989). O‘zbekiston xalq shoiri (1993). She’rlari 1965-y.dan boshlab e’lon qilina boshlagan. Shoirning “Karvon qo‘ng‘irog‘i” (1973), “Quyosh soati” (1974), “Yonayotgan daraxt” (1976), “Yarador chaqmoq” (1977), “Seni yaxshi ko‘raman” (1981), “Daraxtlar va giyohlar” (1984), “O‘rtamizda birgina olma” (1990), “Odamning soyasi quyoshga tushdi” (1991), “Qush yo‘li” (1993), “Iymon yog‘dusi” (1994), “Ardaxiva” (2000), “Xoja Ahror ziyoratlari” (2002) kabi she’riy asarlari chop etilgan. Iste’dodli shoir O.M. N.ni o‘ziga ustoz bilib, uning bir emas, bir necha asarlariga murojaat etib, turli janrlarda asarlar yaratgan. N.ning “Avvalgilarga o‘xshamas” g‘azaliga muxammasi shoirning yorqin iste’dodini namoyon qilgan. Mazkur g‘azalda oshiqona, orifona hamda ijtimoy, axloqiy qarashlarni mushtarak qila olgan. Muxammasning ilk bandi quyidagicha:

Charx avzoyi bu dam avvalgilarg‘a o‘xshamas,
Kotib-u davr-u raqam avvalgilarg‘a o‘xshamas,
Endi inson qadri ham avvalgilarg‘a o‘xshamas,
Ko‘nglum ichra dard-u g‘am avvalgilarg‘a o‘xshamas,
Kim ul oyning hajri ham avvalgilarg‘a o‘xshamas.

O.M. tarix va bugunni birlashtira olgan mutafakkir shoir. Ushbu asarida ham davrning jasoratli farzandi o‘laroq N. qarashlariga hamohang misralar yaratadi. N. ruhiyatidagi poklik, ulug‘vorlik shoirni ruhlantirgan:

Ne uchar yulduzlar o‘tdi chalg‘itib elni juda,
Necha avlod yo‘li-yu umidin aylab behuda,
Davr mezoni bilan tortay bu kun o‘zimni-da,
Ne sitamkim qilsa rahm maxfiy erdi zimnida,
Emdi qilsa ne sitam avvalgilarg‘a o‘xshamas.

“Ming bir yog‘du” asari, muallifning o‘zi ta’kidlaganidek, ma’rifiy dostondir. Shoir “X.”dagi purhikmat va falsafiy baytlardan ta’sirlanib, qalam tebratadi. Maqsadi, “shavkatli bobomizning ming bir xislatli – ming bir yog‘duli bu asarini tashviq-targ‘ib qilmoq va ilohiy iste’dod egasiga yana bir bor ta’zim qilmoqdir”. Ijodkor buyuk “X.”da xalqning o‘tmishi, buguni va taqdirini ko‘radi. Ulug‘ pirning bu asarida adolatli va farovon jamiyat u-n zarur bo‘lgan ko‘rsatmalarning barchasi mujassam:

Piring kim? Bilmadim.
Men so‘z ayturman
“Xamsa” bilan o‘lchab xalqimning qonin,
Besh yuz yil o‘zbekday cho‘ng bir xalqqa u
Qutlug‘ dastur bo‘ldi, Asosiy qonun!

Shoir “Qutlug‘ dastur” – “Asosiy qonun”ni “tashviq-targ‘ib qilmoq” maqsadi ila “X.”dagi mavzu va g‘oyadan kelib chiqib so‘z yuritadi. Muallif izohi va 203 qismdan iborat asarda “Xamsa”dan jami 864 misra olingan. Jumladan, 54 ta 1 baytli, 94 ta 2 baytli, 37 ta 3 baytli, 13 ta 4 baytli, 4 ta 5 baytli, 1 ta 7 baytli iqtibos muallif fikr yuritgan mavzularning navoiyona xulosasi sifatida xizmat qiladi. “Bu oliy fazilatli odam kim?” deb nomlangan birinchi band butun asar u-n go‘yo asos vazifasini o‘taydi. Unda muallif o‘quvchini peshonasiga “ajib ranglar” b-n tushayotgan sirli nurning manzili tomon yetaklaydi, ya’ni bugunning o‘quvchisini moziyga chorlaydi. Bu nur “madaniyatimizning oyinayi jahonnomasi” – quyosh yanglig‘ “X.”dan taralmoqdadir. “Ming bir yog‘du” dostoni tarkibidagi bandlarni shartli tarzda uch qismga bo‘lish mumkin: 1. Sarlavha; 2. Nasriy she’r shaklidagi muallif qalamiga mansub qism; 3. “X.”dan olingan iqtibos. Shoir sarlavhalarga bir necha vazifa yuklaydi:

1. Sarlavha bayt va “X.” mazmunidan kelib chiqqan holda tanlanadi. M-n, “X.”dagi:

Kim, bo‘lsa tabiati muolij,
Jismidin etar marazni xorij.
Za’f ichra tabiat o‘lsa mushfiq,
Behroqki tuman tabibi hoziq!

misralarida fikr dard, shifo, tabib haqida. Muallif shundan kelib chiqib, bu bandga “Dono tabib” deya sarlavha qo‘yadi.

2. “Har bir bandning birinchi misrasi ham sarlavha, ham bandning birinchi satri bo‘lib keladi”. Ammo ayrim bandlarda sarlavha birinchi misraning dastlabki qisminigina tashkil etadi. “Bolajonli ota farzandining”, “kashfiyotchilar piri har bir fasldan” kabi o‘rinlarda to‘liq misraga sarlavha sifatida qaralsa, badiiyat yo‘qoladi. Shuning u-n muallif sarlavhani bosh harflarda ajratishni ma’qul ko‘rgan.

3. Barcha sarlavhalar N. siymosi orqali yagona syujet chizig‘iga birlashtirilgan. Birinchi banddagi “Bu oliy fazilatli odam kim?” deb nomlangan savol-sarlavhaga keyingi sarlavhalarning, deyarli, barchasi o‘ziga xos javobdir. M-n, “Yuraklarni yo‘lga, yangilikka undovchi”, “O‘rta va barcha asrlar ma’rifatchisi”, “Xalqparvar siymo”, “Shohlar siyosatining nayranglaridan xabardor siymo”, “Ishqiy maktublar mirzasi” va h.k.

4. Yagona syujetga bog‘lanishdan tashqari har bir sarlavha o‘zi tegishli bo‘lgan bandning mavzusini belgilab beradi.

5. Sarlavhaga o‘quvchi e’tiborini jalb qilish maqsadida o‘ziga tegishli bo‘lgan bandning ochqich kaliti (tuguni) vazifasi ham yuklatilgan. Sarlavhalar borasida sanalgan fikrlarga

bo‘ysunmaydigan yoki nomigagina sarlavhaga chiqarilgan satrlar ham ko‘zga tashlanadi. M-n, “Rahbarlik rayosati va siyosatidan”, “O‘zgalar g‘amiga hamdard hamshira!” kabi sarlavhalar savol-sarlavhaga javob bo‘lmaydi va N. obraziga birlashmaydi.

O.M. N. b-n 203 marta ma’rifiy muloqot qiladi. Prof. N.Komilov: “Buni sharh-interpretatsiya yoki badiiy konspekt yoxud darddoshlikning shoirona izhori, o‘ziga xos tatabbu’” – deya baholaydi. Dostonda “X.”dan saylab olingan baytlarni shoirona tavsiflash asnosida N. siymosi yo ta’riflanadi, yoki majoziy ma’noda mutafakkir tilidan nutq so‘zlanadi. N. qahramonlari b-n bir qatorda ulug‘ mutafakkirning o‘zi ham O.M.ning ideali sifatida gavdalanadi. “X.” kabi O.M.ning “Ming bir yog‘du” ma’rifiy dostoni ham erk, adolat, ozodlik, g‘urur, milliylik, ma’rifatparvarlik, vijdonlilik kabi ezgu g‘oyalarni ilgari suradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-жилдлар. – Т., 2011; Омон Матжон. Эркин ҳаволарда. – Т., 1997.*

Z.R., Mun.H.

OMONAT YUKI – alast bazmida – yaratilish kunida Alloh b-n inson o‘rtasida qilingan ahdu paymon. Yana aytishadiki, Alloh taolo o‘zining sirlar xazinasini ochganida uni na ko‘k qabul qilibdi-yu, na yer – faqat ko‘ngil borligi u-n inson qabul qilibdi. Natijada Haq inson ko‘nglini ma’rifat xazinasi qilib, o‘zini shu tilsim ichra pinhon qilgan. Insonning barcha mavjudotdan afzal qilinib, boshiga sharaf toji qo‘yilgani shundandir. N.ning “H.A.”, “L.T.” dostonlarining muqaddima boblarida bu haqda so‘z boradi. G‘azallarida ham ayni mazmundagi baytlar uchraydi. M-n:

Birov amonatin asray olmas, archi erur
Xudoy amonatini asramoq havolat anga.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Сажжодий. Фарҳанги истилоҳот ва таъбироти ирфоний. –Теҳрон, 1370. (ҳ-ш); Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005; Очилов Э. Бир ҳовуч дур. – Т., 2011.*

E.O., B.R.

ONA – N. asarlaridagi obraz. Xususan, “L.M.” dostonining yordamchi qahramonlaridan biri. Dostonda ikki bosh qahramonning O.si alohida ta’rif-tavsif qilinadi va ma’lum o‘rinlarda ularning ishtiroki seziladi. Avvalo, Majnunning O.si haqida quyidagilarni keltirish mumkin. U dostonda alohida holda ko‘zga tashlanmaydi. “Ato-anosi” tarzida birgalikda tilga olinadi:

Ato-anosida g‘am uza g‘am,
Ne g‘am uza g‘amki, so‘g-u motam.
Ham qo‘ydi atosi notavonliq,
Ham bo‘ldi anosi toza jonliq.

Lekin dostondagi qisqa chizgilarda ham uning mushfiq, mehribon, mushtipar, ichkuyar O. ekanligi ko‘rinib turadi. M-n, ilk behushligidan o‘ziga kelganida, u bolasining boshidan aylanadi, o‘z navbatida Qays uning oyog‘iga bosh qo‘yadi. O. oilada o‘z o‘rnini bilib, erining ra’yini ma’qullaydi, undan o‘tib bir so‘z demaydi. Dostonda ota-ona bir xil o‘ylaydilar, bir xil qaror qabul qiladilar, bir xil harakat qiladilar. Ikkisining fikri birgalikda ifoda topadi. M-n:

Ahvoliga qildilar muvoso,
So‘z demadilar nasihatoso...
“Biz ko‘p so‘rsak bu so‘z maqoli,
Nobud etari oni infioli...”

deydilar o‘ziga kelgan o‘g‘illarinnig xijolatdan o‘zini qayerga qo‘yishini bilmayotganini ko‘rib.

O. faqat uch o‘rinda alohida namoyon bo‘ladi. Birinchi marta otasi Majnunni bir buzuqdan topib, unga hasrat qilganida, “Onang tun-u kun “o‘g‘lim” deb boshini toshga urib yig‘laydi. Boshida bir tola qora soch, tanida jondan asar qolmagan. Har ohidan falak o‘qining qaddi bukiladi”, – deydi unga onayizorning ayanchli va qayg‘uli ahvo-

lidan xabar berib. Ikkinchi marta so‘nggi umidlari ham puchga chiqib, Majnun yana qadrdon sahrosiga bosh olib ketgach, otasi nomusdan yotib qoladi va shu ko‘yi hasrat b-n yorug‘ dunyoni tark etadi. Bir yondan o‘g‘il dard-u g‘ami, ikkinchi yondan er motami O.ni ham go‘rga tiqadi. Chunki uning hayotida ma’no qolmagan edi. Uchinchisi, Majnunning uning qabrini quchib yig‘laganida: “Sen jonimning qiblasi-yu, qiblamning nuri, ko‘nglimning quvonchi-yu, ko‘zimning chirog‘i eding. Sen Ka’ba eding-u, men nodon dayr izlab ketib, Ka’bamni xarob qilibman. Bu charxi zolim gavhar deb, qo‘yningga bir tosh solgan ekan. Sen tunlari mijja qoqmay meni bir parcha etdan odam qilding. Men esa xizmatingni qilib, sening oldingdagi farzandlik qarzini uzmadim: Sen esa dunyoni g‘am-u hasrat bilan tark etding”, – deb uzrxohlik qiladi.

O. – N. dostonda alohida mehr-u muhabbat b-n yaratgan obrazlardan hisoblanadi. Uning siymosida farzandi u-n jonfido mushtipar bir ayolni ko‘ramiz.

Majnunning onasi kabi dostonda Layli O.sining ishtiroki ham, deyarli sezilmaydi. Dostonning boshida Layliga hamdard va xayrixoh sifatida doya birinchi o‘ringa chiqadi. O. esa qizining ahvoli og‘irlashganidan faollashib, bundan erini ham xabardor qiladi. Darhol tabib chaqiradilar. Lekin Laylining dardi yengillashmaydi, bil’aks og‘irlashgandan-og‘irlashib boradi. So‘nggi muhlat yaqinlashganini sezgan qiz onasini yoniga chorlab, o‘zini Majnun b-n bir kafanga o‘rab, bir qabrga qo‘yishlarini vasiyat qiladi. Ko‘z yumgan qizining ustida O.ning soch yulib yig‘lashlari dostonning eng qayg‘uli, eng ta’sirchan o‘rinlaridir. O. shu yerda butun borlig‘i b-n namoyon bo‘ladi. U qizining abadiy uyquga ketganiga ishonmay: “Bu ne og‘ir uyqu?!” – deb faryod soladi. – Tura qol, ochiq havoda dugonalaring bog‘ sayliga chiqish u-n seni kutib turishibdi. Seni kiyintirib, yasantirib ularga qo‘shay.

Qizlar bila ul taraf xirom et,
Din ahlig‘a zuhdni harom et.

Sen bu yoqdan kelib, u yoqdan Majnun so‘roqlab kelsa, nima deb javob aytay?

Ham meni, ham oni zor qilma,
Andin meni sharmisor qilma.

Albatta, doya kabi O. ham Layli b-n Majnun mojarosidan boxabar, qizining baxtini tilasa-da, otasiga qarshi ham borolmas edi. Dostonda u mehribon, jonkuyar, ayni paytda, mushtipar va ojiza ayol qiyofasida namoyon bo‘ladi. Kishilik jamiyati ichida yashab, yozilmagan qonunlariga qarshi borib bo‘lmaydi. Uning ham qo‘lini odamlarning gap-so‘zi, oila sha’ni, or-nomus kabi qadimiy an’ana va qadriyatlar bog‘lagan edi.

Ad.: *Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011.*

E.O.

“ONOLARNING AYOG‘I OSTIDADUR...” – “A.” (“Chihil hadis”)dagi qirq qit’aning biri. Bu qit’a u-n N. salaflarida bo‘lganidek, quyidagi hadis asos bo‘lgan: “Al jannatu tahta iqdom ul-ulmahot” (Jannat onalarning oyog‘i ostidadir).

Jaloliddin Rumiy mazkur hadisning mazmunini forsiy bir misrada bergan: “Zeri poyi modaron boshad jinon”.

“Chihil hadis” yaratish an’anasida mazkur hikmatli iboraning ma’nosi qirqta hadisning biri sifatida she’rga solingan, N.ning bu borada ham o‘z novatorligini namoyish etgan. Mazkur hadisning mazmuni dastlabki ikki misrada bayon qilinadi:

Onolarning ayog‘i ostidadur
Ravzayi bihisht-u jinon bog‘i.

Qat’iy xulosa sifatida bayon qilingan fikr shu holatida ham go‘zal va tushunarli. Lekin mutafakkir shoir bu b-n cheklanmaydi. Ana shu fikrni davom ettirib, undan ibratli xulosa chiqaradi. Ya’ni bihishtni sen uzoqlardan qidirib o‘tirma. U

sening huzuringda, lekin, afsuski, sen uni idrok etmaysan. Binobarin:

Ravza bog‘i visolin istar esang,
Bo‘l anoning oyog‘in tufrog‘i.

Ad.: *Алишер Навоий. Арбаъин. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

I.H.

ORZIBEKOV Rahmonqul (1931, Jalolobod (Qirg‘iziston Respublikasi) − 2011, Samarqand) − adabiyotshunos. O‘zi tug‘ilgan Bekobod qishlog‘idagi maktabda o‘qigan. Bolaligi Ikkinchi jahon urushi yillariga to‘g‘ri kelganligi u-n jamoa xo‘jaligida hisobchi, kotib, bosh hisobchi yordamchisi vazifalarida ishlaydi. 1951–1956-yy. da O‘zDU (hozirgi SamDU)ning Filologiya fakultetida tahsil oladi. O‘qishni imtiyozli diplom b-n tugatgach, o‘zi tahsil olgan o‘quv dargohida o‘qituvchi sifatida mehnat faoliyatini boshlaydi.

1959-y.da esa u O‘zbek adabiyoti kafedrasiga aspiranturaga kiradi va o‘zbek mumtoz adabiyoti muammolariga doir ilmiy izlanishlarini boshlaydi. Yosh olim 1963-y.da akad. V.Abdullayev ilmiy rahbarligida “Shavqiy Kattaqo‘rg‘oniy va uning adabiy muhiti” mavzusida nomzodlik ishini muvaffaqiyat b-n himoya qiladi. Bu tadqiqot b-n Kattaqo‘rg‘on adabiy muhitini tadqiq etish, adabiyotimiz tarixida salmoqli o‘rin egallagan Noqis, Ahqar, Vola, So‘fi Olloyor, Miriy, Dabiriy singari ijodkorlar adabiy merosini tadqiq etish ishi boshlab beriladi.

O.R. N. adabiy merosini tahlil va targ‘ib etish ishiga ham munosib hissa qo‘shib keldi. Uning “Navoiy va Sharq xalqlari adabiyoti”, “Fors-tojik adabiyotida Navoiyga izdoshlik tarixidan”, “Alisher Navoiy va o‘zbek poeziyasida o‘z g‘azallariga tazmin musammat yaratish an’analari”, “Navoiy “Xamsa”sida nomachilik an’analari”, “Navoiyning lirik janrlar rivojidagi roli va o‘rni”, “Chiston janrida ham benazir”, “Navoiy va Kattaqo‘rg‘on shoirlari”, “Navoiy va turkman adabiyoti”, “Navoiy dahosidan madad olib...” singari 20 dan ortiq ilmiy maqolalarida buyuk shoir lirik merosining janriy tarkibi b-n bog‘liq adabiyotshunoslikda kam o‘rganilgan jihatlar, N.ning qardosh turkiy xalqlar adabiyotlariga ko‘rsatgan hayotbaxsh ta’siri masalalari yoritib berilgan.

Ad.: *Лирикада кичик жанрлар. – Т., 1976; Ўзбек шеърияти жанрлари. – С., 2002; Адабий меросимиз сеҳри. – С., 2006; Сувонқулов И., Абдураҳмонов А. Раҳмонқул Орзибеков // ЎТА, 2001. № 4; Муҳиддинов М., Салоҳий Д. Раҳмонқул Орзибеков // ЎТА, 2006, № 3.*

D.S., E.O.

ORZUVORIY – Eronning turkiy tilli aholisi o‘rtasida keng tarqalgan qo‘shiq bo‘lib, ko‘proq hazaji musammani solim vaznida yaratilgan. Ba’zi qo‘lyozmalarda bu nom orzudoriy, aruzvoriy tarzida ham uchraydi. I.Sulton ham “M.A.”ning tanqidiy matnda “orzuvoriy” shaklini keltirgan. Lekin N.ning 15 jildlik “Asarlar” va 20 jildlik “Mukammal asarlar to‘plami”da O. tarzida berilgan. 10 jildlik “To‘la asarlar to‘plami”da ham xuddi shu shaklda keltirgan bo‘lib, O.ning to‘g‘ri ekanligi haqida izoh bor. N.Mallayev ham mazkur variantni ma’qullaydi. Turkiya nashrida: “arazväri” va Ozarbayjon nashrida “arazvari”. Ozarbayjon olimi T.Quliyev, hatto Iroq turkmanlari orasida keng tarqalgan bu kuy ozarbayjon maqomlari orasida “Aruzvoriy zarbi maqom” nomi b-n o‘ziga xos o‘rin tutishi haqida ma’lumot beradi. “M.A.”da bu haqda o‘qiymiz: “Yana Iroq ahli tarokimasida surudedur shoye’kim, ani “aruzvoriy” derlar va aning bayti ko‘prak hazaji musammani solimdadur, andoqkim, bayt:

Saqohum rabbuhum xamri dudog‘ing
kavsarindindur,
Bu mayni ichtikung nuqli hadising
shakkarindindur.

Mafo'iylun mafo'iylun mafo'iylun mafo'iylun.

Va yana ramali musammani mahzuf vaznida ham ayturlar, andoqkim, bayt:

Davlati vasl iltimosi ne hikoyatdur mango,
Buki yoding birla jon bersam kifoyatdur mango.

Fo'ilotun fo'ilotun fo'ilotun fo'ilun

Chun o'zonlarning o'zmog'i va o'zbaklarning budi-budoyi hech vazn bila rost emas erdi, anga taarruz qililmadi, agarchi asarlari bordur, ammo aning aruz ilmig'a daxli yo'qtur".

Ad.: *Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т., 1976.*

E.O.

ORIPOV Abdulla (1941, Qashqadaryo – 2016, Toshkent) – shoir, tarjimon, davlat va jamoat arbobi. O'zbekiston xalq shoiri (1991), O'zbekiston Qahramoni (1998). "Mitti yulduz" (1963) nomli ilk kitobi b-n o'zbek she'riyatiga o'ziga xos ovozga ega shoir sifatida kirib kelgan O.A. "Ko'zlarim yo'lingda" (1966), "Onajon" (1969), "Ruhim", "O'zbekiston" (1971), "Xotirot" (1974), "Yurtim shamoli" (1976), "Najot qal'asi" (1981), "Surat va siyrat" (1982), "Yillar armoni" (1984), "Haj daftari", "Munojot" (1992), "Saylanma" (1996), "Dunyo" (1995), "Shoir yuragi" (2003), "Talosh pallasi" (2007) kabi ko'plab she'riy to'plamlari, "Jannatga yo'l" (1978), "Hakim va ajal" (1980), "Ranjkom" (1988) dostonlarini o'quvchilar e'tiboriga havola qildi. Oltmish yoshga to'lishi munosabati b-n 4 jildlik "Tanlangan asarlar"i chop qilindi (2001), "Adolat ko'zgusi" (2005) va "Quyosh bekati" (2010) to'plamlari ularning mantiqiy davomi sifatida nashr etildi.

O'zbekiston mustaqilligi O.A.ga go'yoki ikkinchi hayot baxsh etdi. U Ona Vatanimizning shonli tarixi, istiqlol nash'asi ko'ksini g'ururga to'ldirgan buguni va buyuk kelajagini ulug'lab, jo'shib asarlar bitdi. "Haj daftari" (1992) turkumi, "Sohibqiron" dramasi (1995) va ko'plab boshqa she'rlari shular jumlasidandir.

O.A.ning o'zbek adabiyotini rivojlantirishdagi xizmatlari davlatimiz tomonidan munosib baholangan – u "O'zbekiston xalq shoiri" (1990), "O'zbekiston Qahramoni" (1998) faxriy unvonlari, O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti va "Do'stlik" ordeni b-n taqdirlangan edi. O.A. hamisha O'zbek tili, adabiyoti va folklori ilmiy-tadqiqot instituti b-n hamkorlik qilib kelgan. U institutda o'tkaziladigan barcha ilmiy va adabiy tadbirlarda faol ishtirok etar, xususan, an'anaviy n.xonlik anjumanlarining doimiy ishtirokchisi edi. Bu anjumanlarda u buyuk shoir haqidagi ohorli fikrlari b-n o'rtoqlashar, yangi she'rlaridan namunalar yoki N. g'azallariga bog'lagan muxammaslarini o'qib berar edi. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalining esa ko'p yillik tahrir hay'ati a'zosi edi (2001–2016).

O.A. ijodini so'z saltanatining sohibqironi N.ning ilhombaxsh ta'siridan ayri holda tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki davrimizning mashhur shoiri bir umr o'zining buyuk salafidan o'rgangan, ta'sirlangan, ilhomlangan: ulug' so'z san'atkoriga bag'ishlab qator she'rlar bitgan, shams ul-millat ijodini tadqiq etib maqolalar yozgan, ko'plab she'rlari, maqola va suhbatlarida g'azal mulkining sultonini havas va hayrat b-n tilga olgan, ustod shoir haqida muhim va e'tiborga molik fikrlar bildirgan. Jahon adabiyotining muazzam siymolaridan bo'lgan N.ning abadiyatga tatigulik adabiy maktabidan saboq olib, mahorat sirlarini o'zlashtirgan. "Men Navoiy va Boburdek zotlarni o'qib ulg'ayganman", – degan edi bu haqda uning o'zi "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" haftanomasida M.Abdullayev b-n qilgan "O'tgan daholarning nomin etib yod" nomli suhbatida. Bu olamshumul merosni qayta-qayta mutolaa qilish natijasi o'laroq, so'zni ming bir maqomda o'ynatib, uni mo'jiza darajasiga ko'tarish sinoatiga oshno bo'lgan. Ayni jihatdan, O.A. va

N. mavzusini quyidagi guruhlarga bo‘lib o‘rganish mumkin:

1. O.A.ning N.ga bag‘ishlangan she’rlari (“Alisher”, “Alisherning onasi”, “Alisher va talaba”). Jumladan, u “Alisher” she’rida san’atkor shoir ijodining buyuklik sirini shunday talqin etadi:

Baytingga bir bora qovushgan har lab,
Takrorlab ketgusi mahshargacha to.
Qaratib turibsan bu yon, ne ajab,
Milliard martabali jahonni, hatto.

2. O.A. she’rlarida kelgan N. zikri. U o‘zining o‘nlab she’rlarida (“Sozim”, “Avlodlarga maktub”, “Bahor”, “O‘zbekiston”, “O‘zbekistonda kuz”, “Bobur”, “Asrlarning karvonlari” va boshqalar) u yoki bu munosabat b-n ulug‘ shoirni tilga oladi, uni ta’rif etadi, buyukligidan bahs etadi, dahosiga badiiy baho beradi, qalamining qudrati oldida hayrati va muhabbatini izhor etadi. Jumladan, “O‘zbekiston” she’rida uni shunday yuksak ta’riflaydi:

Temur tig‘i yetmagan joyni
Qalam bilan oldi Alisher.

3. N.ning mashhur “Jamoateki, junun man’ini manga qilasiz” misrasi b-n boshlanadigan g‘azaliga taxmis bog‘lab, g‘azal mulkining sultoni fikrlarini rivojlantirish, ularning yangi qirralarini ochish, bu fikr-tuyg‘ularni yanada kengaytirish va to‘ldirishga, shu orqali hozirgi o‘quvchiga yangi bir she’r taqdim etishga muvaffaq bo‘ladi. Xalaf shoir tizgan misralarning salaf shoir baytiga qanchalik uyg‘unlashib, yalakat mag‘iz hosil qilishining yorqin misoli sifatida ayni muxammasning bir bandini keltirish kifoya:

Kelibdur og‘zima jonim, qilurman ishqim zikr,
Netaykim, visol erdi orzu, vale dildordin makr,
Netsun, Abdulla hayrondur, ey pir, aylang fikr,
Navoiy hajrg‘a qoldi, qiling visolda shukr,
Jamoateki, sevar yoringiz bila bilasiz.

4. O.A. ijodida N. ta’sirida yaratilgan ulug‘ shoir she’rlariga hamohang fikrlar, shoir fikrlarining tazmin sifatida keltirilishi, ba’zi fikrlarining ijodiy o‘zlashtirilishi yoki yangicha talqinda ifoda etilishi. M-n, uning insof, vijdon, mehr, vafo, hayo kabi insoniy fazilatlarning yo‘qolib ketgani haqidagi fikrlari ustozining “M.Q.” pandnomasidagi ayni qadriyatlarning yo‘qlikka bosh olib ketgani haqidagi fikrlariga hamohang. “Yaxshilik yo‘llari” she’ridagi:

Yaxshilik qilishning yo‘li ko‘p, ukam,
Yomonlik qilmasang, yaxshilik shu ham, –

misralari N.ning yaxshilik qilolmaganingga yarasha yomonlik qilmasang, shu ham yaxshilik o‘rniga o‘tadi mazmunidagi quyidagi fikrlariga hamohang jaranglaydi:

Yaxshilig‘ gar qilmasa, bori yomonlig‘ qilmasa
Kim, yomonlig‘ qilmasa, qilg‘ancha bordur
yaxshilig‘.

Yaxshilik ar aylamasang ish chog‘i,
Aylamagil bori yomonliq dog‘i.

“Yaxshidin yomonlar ham yomonlig‘ ko‘z tutmas, yaxshi yomonlarg‘a ham yaxshilig‘ni unutmas. Yaxshiliq qila olmasang, yomonliq ham bore qilma. Yaxshiliqdan yomonlig‘ni yaxshiroq bilmasang, yaxshilarga qo‘shul, yaxshiliq tegrasig‘a evrula olmasang, yaxshilar, tegrasiga evrul”.

Yoki shoirning ko‘p yillik hayotiy kuzatishlari va falsafiy mushohadalarining mahsuli bo‘lgan:

Dunyoning g‘alati yo‘rig‘iga boq,
Kimga aysh tashna-yu kimga dor mushtoq.
Lekin hammasida ma’no bittadir:
Qurbon oldin ketar, jallod keyinroq, –

mazmunidagi to‘rtligi salafining teran hikmat darajasiga ko‘tarilgan:

Erur mazlum-u zolim qatli ishq ollida ko‘p oson,
Agar Farhod o‘ldi, qatl topmay qoldimu Parvez?! –

baytini esga soladi. Zero, N. o‘z asarlarida “inson va uning qalbi ma’naviy manzaralari, illat va fazilatlarini, buyukligi va tubanligini yuksak mahorat bilan” ifoda etgan (“O‘tgan daholarning nomin etib yod”).

“Avlodlarga maktub” she’rida esa ustoz shoirning bir misrasini tazmin sifatida keltirib o‘tadi:

Yo‘q, polvon emasdik bizlar ham aslo,
Jussamiz oddiy deb chekmasdik anduh.
Bir kun aytibdirki, Navoiy bobo:
“Doim o‘zga bo‘lur suvrat ila ruh”.

5. O.A.ning N.ga bag‘ishlangan maqolalari (“Ulusning navobaxshi”, “Navoiyni anglash”, “Ruhiyat pahlavoni”). Bu maqolalarida u ulug‘ shoir asarlari mutolaasidan olgan taassurotlarini to‘lib-toshib qog‘ozga tushiradi, ular yuzasidan chiqargan xulosalarini havola etadi, nozik kuzatishlarini teran bayon etadi. O‘zi e’tirof etganidek: “Ulug‘ shoirimiz ijodini o‘qib-o‘rganish, uning mag‘zini chaqa bilishning o‘ziyoq yetuklikdan bir nishonadir” (“Bebaho maktab”). Jumladan, “Ulusning navobaxshi” maqolasida shunday fikrlarni bildiradi: “Ayonki, buyuk Navoiy ijodi va faoliyati ulug‘ bir ummondir. Uning tubiga yetish yoxud bu buyuk bahrni daf’atan baholash necha-necha avlodlarning ham umriga tatigulikdir... N.ning she’riy mahorati haqida bir umr to‘xtovsiz gapirish mumkin...

N. o‘z davrining qomusi...

N. ideallari bir xalq, bir til, bir qavm chegarasiga sig‘maydi. Bu zotning o‘gitlari jami inson bolasiga, es-hushi joyida bo‘lgan tafakkur sohiblariga qaratilgandir. Shu boisdan ham yer yuzining turli puchmoqlarida buyuk N.ni faqat iltifot yuzasidan emas, balki bashariyatga mehnati singgan zot bo‘lganligi u-n ham ardoqlab turibdilar...”

6. O.A.ning turli maqola va suhbatlari (“Ustozlar sabog‘i”, “She’r va she’riyat haqida”, “Turkiy asilliklar yurti – bu”, “Shukronalik” va boshqalar) dagi N. va uning beqiyos ijodi haqidagi fikrlari. Jumladan, 1966-y.da yozgan “Ustozlar sabog‘i” maqolasidayoq “N. g‘azallarining har bir misrasidagi obraz bizning butun bir she’riyatimizdagi xulosadan bir necha marotaba baland turadi”, deb ulug‘ shoir ijodiga nihoyatda yuksak baho bergan edi. “She’r va she’riyat haqida”gi (1982) suhbatida esa “Men N.dan masalaning mohiyatiga kirishni, she’rni sehrli tayoqchaday o‘ynatishni o‘rgandim” deb, buyuk salafining o‘zining ijodiy kamolotidagi o‘rni, undan mahorat sabog‘ini olganini e’tirof etadi. Ayni paytda yosh ijodkorlarni ustoz shoir ijodxonasidan o‘rganishga, undan so‘z qo‘llash mahoratini o‘zlashtirishga, tilimizning boy va rang-barang imkoniyatlaridan foydalanishga, so‘zlarning ma’nodoshlarini topib, ulardan o‘rinli qo‘llashga, mayda-chuyda mavzular atrofida o‘ralashib qolmay, umuminsoniy tuyg‘ular va qadriyatlarni kuylashga da’vat etadi. Chunonchi, u 1977-y. yozgan “Ehtiyoj farzandi” nomli maqolasidayoq badiiy matnda so‘zning o‘rni qanchalik muhimligini nozik kuzatib, shunday e’tiborga molik fikrlarni ilgari surgan edi: “M.L.”da N. *yig‘lamoq* so‘zining bir necha sinonimlarini keltiradi (ular holatlar hamdir). Xususan, *bo‘zlamoq, o‘kramoq, bo‘kramoq, siqtamoq* va h.k.

Bizning shoirlarimizning qahramoni yig‘layapti deylik. Ammo u qaysi sababga ko‘ra va qanday holatda ko‘z yosh to‘kmoqda? Uzoqroq izlanishga toqat qilmagan yoki didi nomukammal shoir qahramonim umuman yig‘layapti, deb qo‘ya qoladi. Holbuki, haligi o‘xshash sinonimlar shoirga bunday o‘rinda juda qo‘l kelishi mumkin. M-n, tasavvurimcha, bolasi o‘lgan ona bo‘zlaydi, ota o‘kraydi. Yoki ma’lum bir satrda unli va undoshlarning uyg‘un kelishi uchun tuproqni tufroq deyishga to‘g‘ri keladi. Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin. Afsuski, yosh shoirlarimiz ijodning mana shu kabi nozik jihatlariga ko‘pincha beparvo qaraydilar”.

Umuman olganda, N.ning O.A. ijodiga samarali ta’siri yirik va serqirra tadqiqot mavzui bo‘lib, o‘zbek adabiyotshunosligining kun tartibida o‘zining o‘rganilishini kutib turgan dolzarb masalalardan biridir.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Орипов А. Танланган асарлар. 1-8-жилд. – Т., 2001–2016. Очилов Э. Абдулла Орипов ва Алишер Навоий // "Алишер Навоий ижодий меросининг умумбашарият маънавий-маърифий тараққиётидаги ўрни" мавзуидаги 3-анъанавий халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Т., 2018; Ҳаққул И. Ҳаёт, адабиёт ва абадият. – Т., 2019; Очилов Э. Абдулла Орипов ижодида навоиёна оҳанглар // "Ўзбек тили ва адабиёти" , 2021, № 3-сон.*

I.H., E.O.

ORIPOV Malik Qoraboyevich – (1936) falsafa fanlari nomzodi (1971). Leningrad Davlat universitetini (1967) va aspiranturasini (1970) tugatgan. ToshDUda o‘qituvchi (1972). Ilmiy ishlari, asosan, O‘rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy-falsafiy fikrlari tarixi, N. ijodida falsafiy-axloqiy masalalar tadqiqiga bag‘ishlangan. Asosiy e’tiborini N. ijodida konseptual dunyoqarash masalalarini tadqiq etish, N. dunyoqarashining shakllanishida so‘fizmning rolini aniqlash va falsafiy tahlil etish, shoir dostonlari va badiiy obrazlarining ichki (botiniy) mohiyatini ochib berishga qaratadi. N.ning falsafiy va axloqiy qarashlari haqida o‘ttizga yaqin risola va maqolalar e’lon qilgan.

Ad.: *Некоторые принципы гуманизма А.Навои, Вопросы философии и социологии, Вып.2. – Ленинград, 1970; Навоий ижодида реннесанс анъаналарига доир. – Адабий мерос. Вып 2, 1972; Навоий ижодида адолат концепцияси. Ўзбек тили ва адабиёти, №1. 1973; Навоий ижодида ҳурфикрлилик ва антиклерикал ғоялар. 1989.*

Y.I.

ORIF – ma’rifat va irfon sohibi, anglagan, tanigan, botiniy, ya’ni tasavvufiy ilm egasi. Tasavvuf – oshiqlik va oriflik yo‘li. Haq yo‘lchisida ishq jazbasi qanchalar kuchli bo‘lsa, irfon mushohadasi ham shunchalar ziyoda bo‘ladi. Nafsning barcha hiyla-yu nayranglarini O.chalik yorqin anglaydigan ahli dil yo‘q. O.lar nafsiga hokim valiy zotlardir. Barcha tariqatlarning bosh maqsadi ham shu: nafsni tanish va uni tarbiyalash, nafsi ammorani nafsi komila qadar yuksaltirib borish orqali irodali, jasoratli va odil shaxsiyatni dunyoga keltirish bo‘lgan. So‘fiylarning nuqtayi nazarida, irfon Alloh tuhfasi bo‘lgani u-n ilmdan ustun deyiladi. Allohning asmo’ul husnosi va sifatlarini ilm-la emas, balki kashf va mushohada yo‘li b-n idrok etgan, mavhum borlig‘idan kechib, Haq borlig‘i ila bor bo‘lgan zotdir. O. har narsada Haqni ko‘radi, Yaratgan baxsh etgan “Ladun” ishorati bilan uning mavjudligini idrok etadi va mavhum borliqdan kechib, Tangri borlig‘i b-n umr o‘tkazadi. Mahdumi A’zam Kosoniyga ko‘ra, zohid birla orif orasidagi farq quyidagichadir: “Zohid Haq taoloning so‘zlariga mashg‘ul bo‘lg‘ay, orif Haq taoloning o‘ziga mashg‘ul bo‘lg‘ay. Zohid xalqni ilmi zohir birla da’vat etgay, orif xalqni ilmi botin birla da’vat qilg‘ay. Zohidning ko‘zi hushyor, ko‘ngli g‘aflatda, orifning ko‘ngli bedor, ko‘zi g‘aflatda bo‘lg‘ay. Zohidning tili zikrda bo‘lg‘ay, orifning tili zikrda bo‘lg‘ay”. N. “L.T.” dostonida Ma’rifat vodiysining vasfini berganda, Alloh taolo insonni irfon sohibi bo‘lish u-n yaratganini alohida ta’kidlaydi:

Ey qilib insonni koni ma’rifat,
Ko‘nglini aylab jahoni ma’rifat.

Ma’rifat har kimgakim qism aylabon,
Dahr aro orif anga ism aylabon.

O. behuda va befoyda hech bir ishga qo‘l urmaganidek, keraksiz munozara va o‘tkinchi tortishuvlardan ham mutlaqo tiyilishi lozim. N. oriflikning axloqiy-ma’naviy sifat va fazilatlariga alohida diqqat qilgani u-n bir g‘azalida:

Faqr ko‘yida musallam tut, ne qilsang istimo’,
Orif ermas har kishikim qilsa irfon birla bahs, –

deydi. Negaki, ham irfon sohibi bo‘lib, ham o‘zgalar b-n munozara, hojatsiz munoqashaga kirishish oriflik maslagiga tamoman ziddir. “N.M.” asarida orifning o‘zgalar siyratidan ogoh bo‘lish iqtidori va hech bir bandaga hasad qilmasligi hamda sir saqlash layoqatiga doir shayxlar tilidan aytilgan: “Orif uldurki, sening sirringdin so‘z aytqay va sen xomush bo‘lg‘aysen”, “Orifqa sirrida bir ko‘zgu beribdurki, har qachon ul ko‘zguga boqsa, ani ko‘rgay” kabi fikr-mulohazalar ham diqqatga molikdir. N. barcha janrdagi asarlarida O. obrazi va ma’rifat mohiyatiga e’tibor qaratadi. Jumladan, “Orif ko‘nglin daryog‘a nisbat berurki, anga har ne tushsa singirur balki itirur” sarlavhali qit’asida O.ning eng xarakterli xususiyatini tavsiflaydi:

Erur orifqa ganji fayz yetsa,
Ishi dam urmayin ani yoshurmoq.
Quyosh aksi tushub daryo ichinda,
Ne mumkindur oning suvin toshurmoq.

Xoja Bektoshi Valiy odamlarni to‘rt unsurga qiyosan toifalarga ajratar ekan, O.larni asli suvdan bo‘lgan ma’rifat ahli, deb ataydi. Unga ko‘ra, O. ham pokiza, ham poklovchi bo‘lmog‘i lozim. O.ning ibodati tafakkur ila dunyo va oxiratni tark qilmoq, himmat nazari ila valoyatni kutmoq va Haq taolo vasliga yetishmoq orzusidir. Uning holi esa butun borliqqa uyg‘unlik ko‘rsatish va yomon tushunchaga berilmaslikdir. N. tazkiralari, umuman, nasriy asarlarida O. real tarixiy shaxslardir. Shoirning ularga bergan ta’riflarida ham oriflik rutbasi va fazilatiga ahamiyat beriladi. Abu Said Xarroz (q.s.t.) haqida ma’lumot berar ekan: “Agar Allohu taolo Abu Said Xarroz erishgan haqiqatni bizdan talab qilganda, albatta, halok bo‘lardik. Bu so‘zi Junaydning dalil bo‘la olurki, Abu Said Xarroz andin ulug‘roq va aning piri bo‘lg‘ay va aning ustodi. Shayx ul-islom debdurki, bukim Boyazidni Sayyid ul-orifin debdurlar, Sayyid ul-orifin Haq subhonahu taolodur va odamiylardin Muhammad arabiydur (s.a.v.) va bu toyifadin Abu Said Xarrozdur. Va ham Shayx ul-islom debdurki, mashoyix arosida andin ulug‘roq hech kishini tanimasmen”, – deydi. Demak, Haqiqiy O. olamlarning Robbi Alloh taolodir. Bashariyat ahlidan esa komil inson, komil O., shubhasiz, payg‘ambarimiz Muhammad Mustafo (s.a.v.) sanaladi. Xoja Ahmad Yassaviy “Faqrnoma”da O.likni faqrning so‘nggi maqomi deb ta’riflar ekan, uni Muhammad Mustafo (s.a.v.)dan meros qolganligini aytadi va ushbu fikrini shunday asoslaydi: “Faqr maqomi sakkiz turur: avval tavba turur, ibodat turur, muhabbat turur, sabr turur, shukr turur, rizo turur, zuhd turur, oriflik turur. ...oriflik hazrati Muhammad mustafo sallallohu alayhi vasallamdin qoldi”. Albatta, Rasulullоh (s.a.v.)ning hayot yo‘lini ibrat sifatida qabul qilgan, Shariati Muhammadiyani hayotiy mezoniga aylantirgan chin voris ulamolar O. hisoblanadi. Bu masalada N.ning qator e’tiroflari fikrimizni quvvatlaydi. Turk olamida bir necha valiylarning murshidi komili sanalgan Xoja Yusuf Hamadoniy xususida: “Imom, olim, orifi rabboniy, go‘zal hollari, ko‘p ehsonlari, yuksak karomot va maqomotlari bor edi”, – deydi. N. ustodi Sayyid Hasan Ardasherni: “Soliki foniy va gavhari koniy, orifi maoniy”, desa:

Arsh urfonida bir past maqom,
Mast jomi azali orifi Jom, –

deya, piri komili Abdurahmon Jomiyni ta’riflaydi. Yoki “...Manquldurkim, qutb us-solikin va sulton ul orifin, haqiqat ahli imomi, Shayx Boyazid Bistomiy...” deya, tayfuriya tariqati asoschisini sulton ul-orifin deydi. Bu kabi xususiyatlar b-n ko‘pgina valiylar tilga olinadi. Shayx Abu Abdulloh Muhammad b. Ibrohim Qurashiy Hoshimiy (q. s.) haqida: “Oriflar imomi, soliklar rahnamosi, faxrli ahvol va zohir karomotlar sohibi”, deydi. Albatta, O.lik yolg‘iz karomat ko‘rsatish emas. Zero, “N.M.”da bu mavzuda ham bir necha bor bahs yuritadi. Jumladan, “Shayx ul-islom dedikim, karomot sotquchi to ani qabul qilg‘aylar mag‘rurdur va karomot sotqun olg‘uchi agarchi it uni qilmas, ammo ittur, ya’ni haqiqat ka-

romot emas, andin o‘zga nimadur va ul zuhhod va abdolg‘a xush kelur. Sufiyi orif karomotdin yaxshiroqdur va ul karomotning karomotidur”, – deya O.lar ma’rifatining karomatdan ustunligini ko‘rsatadi. O.da Yaratganga muhtojlikdan boshqa biror ehtiyoj qolmaydi. N. ham mana shunday yuksak martabaga erishishni istab, Alloh taologa qayta-qayta munojot qilgan edi:

Yo Rab, ul solikka bo‘lg‘ondek sifat,
Ayla Foniyg‘a nasib ul ma’rifat.
Jahl-u javr-u zulmidin g‘avrig‘a et,
Ham o‘ziga, ham o‘zungga orif et.

Umuman olganda, N.ga ko‘ra, oriflar to‘g‘ri yo‘lni topgan, Haqni tanigan zavq, hol va irfon sohiblaridir. Ular qalb ko‘zi ochiq, kasratdan vahdatga yuksalgan shaxslar. Ammo ahli irfon bunday iqbolga birdaniga va osonlik b-n erishmagan.

Ad.: *Алишер Навоий. ТАТ. 10 жилдлик, 1-10-жилдлар. – Т., 2011; Абдураҳмон Гўзал. Яссавий “Фақрнома”си. – Т., 2014; Ҳаққул И. Тасаввуф луғати // Тафаккур. 1998, № 1,2,3; Латипов Ҳ. Ўзбек муттоз адабиётида маърифат талқини ва ориф образи (XIII-XV асрлар). Фил.фан.б.фал.док. дисс. – Т., 2020.*

S.R.

ORIFIY (to‘liq ismi: Mavlono Maxdum Orifiy Hiraviy) (1388–1449, Hirot) – shoir. Shohrux saroyi b-n aloqada bo‘lgan. Ham Salmon Sovajiydek she’r san’atida mohirligi, ham u kabi ko‘z og‘rig‘iga chalinganligi jihatidan zamon ahli uni Salmoni Soniy deganlar. Badiiy yetuk g‘azallar yozgan, qasida va ruboiyda mohir bo‘lgan. Quyidagi matla’li g‘azali ko‘plab tazkiralarda uning ijodidan namuna sifatida keltiriladi:

Az g‘amzayi joduyi tu chun did ishorat,
Naqdi dil-u din chashmi tu birbud ba g‘orat.

Tarj.: Jodu g‘amzangdan ishorat ko‘rdi-yu, ko‘zing dilu din naqdini g‘orat qildi.

N. “M.N.” tazkirasida uni “bag‘oyat fozil va xushgo‘y shoir” sifatida ta’riflab, Salmonning ko‘z og‘rig‘ida aytgan bir qasidasiga yaxshi javob qilganligi haqida gapiradi va uning maqta’sini keltiradi. G‘azal devoni borligi haqida xabar berib, bir matla’sini beradi:

Ahd kardam, ki nayoyam ba dar az mayxona,
To bad-on dam, ki maro pur nashavad paymona.

Tarj.: To paymonam to‘lmaguncha mayxona eshigidan chiqmaslikka ahd qildim.

“Dahnoma” (“O‘n noma”) masnaviysi ham mavjud. 500 baytli “Holnoma” dostoni, “Go‘y va chavgon” nomi b-n ham mashhur. U birga chavgon o‘ynaydigan darvesh-u shahzoda ishqidan hikoya qiladi. Munozara uslubidan ham foydalangani u-n munozara deb ham yuritiladi. N. uning ushbu munozara masnaviysi go‘zal chiqqanini aytib, ot ta’rifida bitilgan 2 baytini namuna sifatida keltiradi:

Chun go‘yi sipehr gird basti,
Maydon-maydon chu go‘y jasti.

Har goh, ki dar araq shudi g‘arq,
Boron budi-yu dar miyoni barq.

Tarj.: Falak to‘pi kabi aylanding. To‘p kabi maydondan maydonga sakrading. Terga botgan paytingda chaqmoq ichra yomg‘irga o‘xshaydi.

Abdurahmon Jomiy ham “Go‘y va chavgon” munozarasini maqtab, “Bahoriston” asarida uning ot ta’rifida aytgan bir parchasini keltiradi. Davlatshoh Samarqandiy O.ning zamon podshohi va mashhur amirlar madhida ko‘p qasidalar yozganini aytadi. “Dahnoma”sini ham vazir Pir Ahmad bin Is’hoqqa bag‘ishlagan.

“Holnoma” 1931-y.da Londonda nashr qilingan. Uning qo‘lyozma nusxalari ham keng tarqalgan. Badriddin Hiloliyning “Shoh va Darvesh” dostoni shakl va mazmun jihatidan unga o‘xshaydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Абдураҳмон Жомий. Баҳористон. – Т., 1997; Давлатшоҳ Самарқандий. Тазкират уш-шуаро. – Теҳрон, 1338 (ҳ.-ш.); Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилди 1. – Душанбе, 1988.*

E.O.

OSAF – Sulaymon (a.s.)ning vaziri. Ba'zi manbalarda keltirilishicha, Osaf ibn Barxiyo bani Isroilning ulamolaridan bo‘lgan. Sehr-u jodu ilmida ham tengsiz bo‘lgan. N. “T.A.H.”da yozishicha, Sulaymon (a.s.)ning javohirlar b-n bezatilgan taxtini ulkan maydonga keltirib, atrofiga 4 mingta oltin kursi qo‘yishar, ularga Isroil qavmining ulamo va donishmandlari o‘tirar “va taxtga yoqin Osafi Barxiyoki, vaziri erdi, aning kursisin qo‘yarlar erdi”.

Donishmand, tadbirkor, ishbilarmon, ma'rifatparvar vazir bo‘lib, davlat ishlarini tartibga solib, mamlakatni adolat b-n idora qilgan. Sharq mumtoz adabiyotida davlatni aqlu tadbir b-n boshqargan dono vazir obrazi bo‘lib keladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. 1-жилд. – Душанбе, 1987; Фарҳанги забони тожики. 1-жилд. – М., 1969; Носируддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. 2 китоб. – Т., 1991; Бурҳони қотеъ. 1-жилд. – Душанбе, 1993; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. 2-жилд. – Душанбе, 1989.*

E.O.

OSAFIY – (Xoja Shamsiddin Hiraviy yoxud to‘liq ismi: Xoja Kamoliddin Osafiy Hiraviy (1440−1517 Hirot) Hirot adabiy maktabining yirik namoyandalaridan biri, forsiyzabon shoir. N. xizmatiga kirgan va uzoq yillar davomida uning mulozimi bo‘lgan. Ayni paytda buyuk shoirning tarbiyasini olgan, in'om-ehsonlaridan bahramand bo‘lib, homiyligidan foydalangan. N. uning mashg‘ulotlari va ijodini doimo kuzatib borgan, o‘zining iste'dodi-yu iqtidorini zoye qilmay, faol ijod qilishga undagan, dangasalik qilishiga yo‘l qo‘ymaslikka harakat qilgan. Mana shu g‘amxo‘rlik tufayli O. ijodda yutuqlarga erishib, o‘z davrining iste'dodli shoiri sifatida e'tirof etilgan. U Hirotda tahsil olgan. Otasi Naimiddin Ne'matullo Qahistoniy temuriylardan Sulton Abusaidning vaziri bo‘lgan. Abusaid mirzo davrida undan ishbilarmon vazir bo‘lmagan. Husayn Boyqaroning muhim ishlarini bajargan, obodonchilik xazinasi hisobini yuritgan. Adolatli va muruvvatli kishi bo‘lgan. O. devoni, asosan, g‘azallardan iborat. U ishqiy g‘azallari zamirida ijtimoiy, pand axloqiy, hasbi hol mavzularini ham yoritadi. O. zamona nosozliklari, fitna-fujur, yolg‘izlik, xirad ahlining beqadrligidan shikoyatlar qiladi. O. Xusrav Dehlaviy, Hasan Dehlaviy, Kamol va Jomiyga payravlik qilgan.

Bedil “Safinayi Xushgu” asarida O.ga yuksak baho bergan.

Xondamir “Makorim ul-axloq”da iste'dodli, lekin kamhafsala shoir O.ga N. munosabati haqida to‘xtalib, shunday mutoyiba keltiradi: “Bir kuni sof ko‘ngilli amir (ya'ni, Navoiy) fasohat va zarofat bobida zamon shoirlarining peshqadami Xoja Osafiyga nasihat qilish uchun muborak tilini bayonga keltirib aytdi: “Men senga hayron bo‘lamanki, o‘tkir zehning va baland ta'bing bo‘laturib, she'r aytish bilan kam shug‘ullanasan, hamma vaqtingni foydasiz ishlarga sarf qilasan”. U “hozirgi fursatda borgan sari ko‘proq she'r aytishga mashg‘ul bo‘layotirman, masalan, o‘tgan kecha ikki pullik sham yonib bitguncha ikki yuz bayt she'r aytdim”, – dedi.

“Oliyhazrat (ya'ni, Navoiy) demak u tizmalarning yuz bayti bir pul ekan-da!” – dedi.

N. qator asarlarida O.ni tilga oladi. “M.N.”da O.ga uchinchi majlisda to‘xtaladi, uning iste'dodi va hofizasini maqtaydi. Lekin O.ning o‘z poetik iqtidoridan va g‘oyat baquvvat hofizasidan to‘la foydalanmasligi, vaqtini behuda o‘tkazishi, xususan, nasihatga quloq solmasligi u-n koyiydi. N. O.ni ikki tilli shoir bo‘lganligini ta'kidlaydi va turkiyda yozilgan quyidagi baytini keltiradi:

Yuz balolar ko‘rdim, ul oromijondin ko‘rmadim.
Ikki ko‘zumdin yamonlig‘ ko‘rdim
ondin ko‘rmadim.

N. O.ning muammo janrida qalam tebratishini aytadi va namuna tarzida bir muammosini keltiradi ham shoirning yuqorida zikr etilgan nuqsonlardan xolis bo‘lib to‘g‘ri yo‘lga tushib olishiga ishonch bildiradi.

Vosifiy “Badoye’ ul-vaqoye’”da O. va N. munosabatlari haqida yozadi. Ular orasida shunday lavha bor. Unga ko‘ra, kunlardan birida N. Jomiyning qo‘shqofiyali quyidagi matla’ b-n boshlanadigan:

Ey be labi tu to‘tiyi shirinzabon zabun,
Karda inon zi panjayi siyminbaron borun.

Tarj.: “Ey labing (nazdida) shirin tilli to‘ti mag‘lub” g‘azaliga javob yozishni shoirlarga tavsiya qiladi va yaxshi chiqqan g‘azal u-n mukofot belgilaydi. Anchagina shoirlar javob yozib N.ga topshiradilar. O. va Hiloliylar Jomiyning puxta va uslubiy pishiq g‘azaliga javob yozishga jur’at etmaydilar. N. ulardan buning sababini so‘raydi. Ular tatabbu’ yaratganda o‘sha she’rdan ortiq, hech bo‘lmasa unga teng keladigan g‘azal yarata olishi zarur. Binobarin, javob yozmaslikni afzal ko‘rganlarini bayon etadilar. N. mukofotni ana shu ikki shoirga beradi va she’rshunoslik ham yuksak qobiliyatni talab qilishini, bu esa har ikkala shoirda yetarli darajada ekanligini ta’rif etadi. Bu b-n ikkala shoirni g‘oyat rag‘batlantiradi.

N. “S.”da ham O.ni o‘zining do‘stlari, hamkasb va hammaslaklari sirasida tilga oladi, zakovatli shoir sifatida e’tirof etadi. N. “M.N.”da Kavsariy degan qobiliyatli bir shoir haqida so‘zlab, “Xoja Osafiyning musohibligi davlatidinkim, goh-gohi she’r aytur”, – deb yozadi.

“M.N.” tarjimoni Faxriy Hirotiy N. anjumanlarda hamisha O.ning quyidagi matla’sini yoddan o‘qib yurar ekan:

Bad in choni balokash kas nakardast,
sichi man kardam,
Dar in chashmi siyahro‘ kas nadidast,
onchi man didam.

Tarj.: Bu balokash jonga hech kim menchalik jafo qilmagan, bu qaro ko‘z bilan men ko‘rganni hech kim ko‘rmagan.

Faxriy Hirotiy o‘zidan ilova qilgan to‘qqizinchi majlisning birinchi N.ga bag‘ishlangan qismi oxirida Sohib Doroning N. vafotiga yozgan mashhur marsiyasi tariqida O. ham marsiya yozganini bayon etadi va undan quyidagi bir baytni keltiradi:

Hayf azon andomho hamchu gul dar zeri gul.
Bo gulandomon az in savdo farovon karday.

Tarj.: Gul kabi gul ostida yotgan essiz u bo‘ybastlar. U bu motam bilan gulandomlar g‘amini oshirdi.

O. N. vafotiga quyidagi ta’rixni ham yozgan:

On Miri balandqadr, oliy rubbat,
Chun kard az in jahon ba jannat roxat,
Az soli vafotu joyi o‘ pursidam,
Dodand javobi manki, jannat, jannat.

Tarj.: Baland qadrli va oliy martabali u Mir bu jahondan jannatga ravona bo‘lganda. Men vafoti yili va joyini so‘radim. Menga “Jannat, jannat” deb javob berishdi. “Jannat, jannat” so‘zlaridan abjad” hisobicha, N.ning vafoti yili 906-hijriy yil chiqadi.

O. devonining 9 nusxa asosida Hodi Affa’ Karmonshohiy tomonidan tayyorlangan ilmiy-tanqidiy matni, izohlar, ko‘rsatkichlar b-n 1965-y.da nashr etilgan. Noshir devon nashriga katta so‘zboshi yozgan, unda O.ning N. va Jomiylar b-n munosabatiga keng o‘rin ajratilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Т., 1967; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 2002; Давлатшоҳ Самарқандий.*

Тазкират уш-шуаро. – Хўжанд, 2015; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985; Ёди ёри меҳрибон. – Теҳрон, 1380 (ҳ.-ш.).

S.G‘.

OSMON – balandlik va yuksaklik ko‘zda tutiladi. Zavq ahli tilida g‘ayb olamiga ishora, ya’ni ilohiy tajalliy nurining chiqish va tarqalish joyi. Aziziddin Nasafiy har bir O.ni muayyan narsaning makoni va maqomi sifatida ko‘rsatadi:

Arsh – payg‘ambari Xotam ruhining maqomi, Kursi – ululazm payg‘ambarlar ruhining maqomi, manzili va hujrasi, 7-osmon – mursal payg‘ambarlar ruhining maqomi, manzili va hujrasi, 6-osmon – anbiyo ruhi maqomi, 5-osmon – avliyo ruhi maqomi, 4-osmon – hakimlar ruhi maqomi, 3-osmon – zohidlar ruhi maqomi, 2-osmon – taqvo ahli ruhi maqomi, 1-osmon – imonlilar ruhi maqomi, shu tariqa, osmonning to‘qqiz darajasi tugal yakun topti.

“N.M.”da keltirilishicha, Shayx Sa’d Haddod vafotidan keyin bir yashil qush kelib, kimning boshiga qo‘nsa, o‘sha o‘z o‘rniga o‘tirishini tayinlaydi va o‘sha qush Javhar degan oddiy bir kishining boshiga qo‘nganida, u o‘zini bu yuksak martabaga munosib ko‘rmay rad etadi. Shunda odamlar “bu amredur osmoniyki, sanga havola bo‘lubdur va sanga muni qilurdin o‘zga chora yo‘qdur! Tengri taolo sanga ta’yid-u ta’limda bo‘lg‘ay”, – deb, uni Shayxning o‘rniga o‘tqazadilar.

Abu Muhammad Abdulloh Marjoniy Mag‘ribiy zikrida esa shunday bir ilohiy voqea keltiriladi: “Mashoyix buzurglaridin va so‘fiya akobiridindur. Ulumi ilohi va maorifi rabboniy abvobi yuziga ochilgandur. Anga dedilarki, falon dediki, shayx so‘z aytur erdi, ko‘rdumki, osmondin bir nuri amudiy shayxning og‘zig‘a muttasil erdi. Chun Shayx so‘zni bas qildi, ul nur munqati’ bo‘ldi. Shayx tabassum qildi va dediki, ul bilmaydur: nur munqati’ bo‘lg‘ondin so‘ngra men so‘zni bas qildim, ya’ni ul nurdin amud osmondin ilohiy madadining surati erdi. Chun ul madad munqati’ bo‘ldi, so‘z qat’ topti”.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Сажжодий. Фарҳанги истилоҳот ва таъбироти ирфоний. – Теҳрон, 1370. (ҳ-ш); Азизиддин Насафий. Зубдат ул-ҳақойиқ. – Т., 1995.*

E.O., Z.R.

OTA (Laylining otasi) – “L.M.” dostonidagi yordamchi qahramonlardan biri. Hay qabilasining boshlig‘i. U “ko‘zini ravshan” qilgan nuridiydasi. Layli ta’lim-tarbiyasi u-n jon kuydirib, uni deb alohida maktab tashkil qiladi, o‘z davrining eng dono muallimini dars berishga da’vat etadi. Uning o‘zi ochgan maktabda tahsil olib, o‘zini yaxshi jihatdan ko‘rsatgan Qays haqida ham dastlab fikri ijobiy edi. Lekin uning oshiqligi haddidan o‘tib, telbalik darajasiga yetgani u-n unga qizini berib, o‘ziga kuyov qilishga or qiladi va otasiga dag‘dag‘a b-n xabar yuboradi: “O‘g‘lingni eplolmasang, zanjirga sol!” – deb.

Tadqiqotchilar turlicha talqin qilganlaridek, u Majnunning otasidan boy ham, qudratli ham emas. Ikkalasi ikki qabilaning boshlig‘i. Faqat uning talabi haqli bo‘lgani u-n Majnunning otasi qarshilik qilmay, uning amrini bajaradi. Chunki oila sha’ni muqaddas – bir qizni gap-so‘zga qo‘yish, oilasini el oldida sharmanda qilish og‘ir gunohga teng. Sharqda bu – nozik masala. Laylining otasi ovozini ko‘tarishi-yu Majnunning otasi tilini tiyishi shundan. Bu yerda yana ularning shaxsiy tarbiatlarini sabab qilib ko‘rsatish mumkin: Majnunning otasi tabiatan xoksor, mehribon, muloyim, oliyjanob. Laylining otasi esa kibr-u g‘urur sohibi, bir qadar johil va andishasiz, ustiga-ustak mol-dunyoga o‘ch. Chunki u Bani Asad qabilasining boyligi behisob va nufuzli boshlig‘i Ibn Salomdan kelgan sovchilarni xush-xursand kutib oladi va shunday kishi kuyovi bo‘layotganidan boshi ko‘kka etadi. Yoki Navfal qo‘shinidan mag‘lubiyatga uchrayotganida, bu balolarning sababchisi bo‘lgan “shumqadam” qizini o‘ldirmoqchi bo‘ladi.

Majnunning otasiga qo‘pol muomala qilishi, qizini boy xonadonga uzatishni istashi, ahvol tang

kelganda o‘z jigarbandini qurbon qilishdan ham tap tortmasligi qanday tabiat sohibi bo‘lganini yaqqol ko‘rsatib turibdi. Majnunning otasiga qarata:

Bilmangmu shukuhi savlatimni,
A’rob aro mol-u shavkatimni?

Ham o‘g‘lunga, ham sanga bulurmen –
Kim, har ne qilay desam qilurmen, –

deyishi, “Agarda bu hol yana takrorlansa, butun qavming bilan dashtdan yo‘qotib yuboraman!” – deb tahdid qilishi buning dalilidir.

O. – ori baland, nafaqat oilasi, balki qabilasining ham sha’nini o‘ylaydigan kishi. Shuning u-n ham qudratli sarkarda Navfal elchilari qo‘rqmay javob qaytaradi: “Mendan qo‘rqadi, deb o‘ylamasin – urushsa urushaman!” Navfal qo‘shinidan yengilayotganida ham qizining dushmanga asir bo‘lishidan juvonmarg bo‘lishini afzal ko‘radi. U qabilamni bosib olib, Laylini asiralardek haydab ketsa, nomusim qora yerga barobar bo‘lib, el ichida qanday bosh ko‘tarib yuraman deydi.

Laylining ahvoli og‘irlashganda O.ning ham ichi kuyib, g‘ussaga botadi. Uy ichida onaning fig‘oni falakka yetsa, uy tashqarisida O. yoqasini chok qiladi:

Tashqari ato yalang qilib bosh,
Yirtib yaqo, ko‘ksiga urib tosh.

Layli b-n Majnunni bir qabrga qo‘yganlaridan keyin har kuni Laylining ota-onasi va qarindoshlari ikki marta uning mozori boshiga borib yig‘lab, ularni yod etadilar.

N. dostonida O. sha’niga biror tanqidiy so‘z aytmaydi. O. har neki qilsa oilasi va qabilasi sha’nini o‘ylab qiladi. Ayni jihatdan u munosib oila boshlig‘i, qabilaning mard rahnamosi, qat’iyatli, or-nomus u-n o‘limdan ham qaytmaydigan, shu b-n birga qizini jonidan ortiq ko‘radigan va uning kelajagi u-n qayg‘uradigan inson sifatida gavdalanadi. Binobarin, Laylining g‘unchaligicha juvonmarg bo‘lishi, Qaysning Majnun nomini olishi, ota-onasining esa orzu-niyatlariga yetisholmay bu yorug‘ dunyoni hasrat-u armon b-n tark etishlariga – barcha-barchasiga yolg‘iz Laylining otasi sababchi degan talqinlarda asos yo‘q.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

E.O.

OTASH – o‘t, olov. To‘rt unsurdan biri. Tasavvuf she’riyatida u turli ma’nolarda qo‘llanadi. Ishq, muhabbat harorati, sevgi otashi, ishq alangasi. Ko‘proq ilohiy ishq otashi ma’nosida keladi. M-n, otasi ishq biyobonidan topib, Ka’ba ziyoratiga olib borgan Qaysning haj jarayonidagi holatini N. shunday tasvirlaydi:

Ishq etti dimog‘ini mushavvash,
Ko‘ngli aro shavq yoqti otash.

O. N. asarlarida, asosan, otashpora, otashnok, otashin, otashkada shaklida qo‘llanib, ishq o‘ti, ishq o‘tidan lov-lov yonayotgan yurakni tamsil etib keladi. M-n, quyidagi baytida shoir bir parcha o‘t kabi ul mahbuba yuzini ochganida, el ko‘ngliga shunday o‘t soldiki, men kuyib, jiz-biz bo‘lib ketdim, deb mubolag‘a qiladi:

Vahki, yuz ochqach ul otash pora rag‘mimg‘a mening,
Elga andoq soldi o‘tkim, chiqti mendin jiz-u biz.

O.i imtihon – Namrudning Ibrohim (a.s.) u-n yoqqan olovi. Alloh inoyati b-n bu otash gulzorga aylanadi payg‘ambar u-n.

O.i shahvat – nafs tufayli paydo bo‘ladigan hoyu havaslar.

O.i ishq – oshiqni kuydiradigan ishq harorati, uni o‘rtaydigan iztirob, tug‘yon, hayajon.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Ҳаққул И. Тасаввуф ва шеърият. – Т., 1991; Сажжодий. Фарҳанги истилоҳот ва таъбироти ирфоний. – Теҳрон, 1370. (ҳ-ш); Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005;*

I.H.

OFAT – balo; musibat; zarar-ziyon; ranj-alam; xavf; baxtsizlik; kushanda. M-n, N. "M.Q." pandnomasida yozadi:

"Yamon tillik andoqkim, el ko'ngliga jarohat yetkurur, o'z boshig'a ham ofat yetkurur".

Tasavvufda tariqat solikini ma'naviy sayrdan qaytaradigan dunyoviy bog'liqliklar va ne'mat-u lazzatlarga ishora qilinadi. Tilning ofati – yolg'on gapirish, quloqning ofati – g'iybat tinglash, qo'lning ofati – o'g'rilik qilish.

Tariqat O.i deb esa karomatni aytadilar. M-n, "M.Q." pandnomasida nafs xavfi va shayton makridan muhofaza qilib, solikka yetuk pir tariqat yo'lida rahnamolik qilish muhimligi haqida N. shunday yozadi:

"Maqsudkim, bu yo'lda nafs dushmandur va shayotin rahzan va har qaysi azim maxofat va ulug' ofatdur, to hodiy boshqarmag'ay va murshid mahlakadin o'tkarmag'ay bu yo'l qat'i mutaassirdur va maqsadg'a yetmak mutaazzir".

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Сажжодий. Фарҳанги истилоҳот ва таъбироти ирфоний. Теҳрон, 1370. (ҳ-ш); Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005;*

E.O.

OUSELI Ser Gore (Sir Gore Ouseley 1770–1844.) – irlandiyalik tadbirkor, diplomat, sharqshunos. (Mashhur sharqshunos Uilyam Ouselining ukasi). London Qirollik Osiyo jamiyati asoschisi (1823), Sharq tarjimonlik qo'mitasi tashkilotchisi, Sharq qo'lyozmalarini nashr etish jamiyati prezidenti (1842). O. Hindistonga ko'chib o'tib (1787), u yerda fors, arab, sanskrit tilini o'rganadi. Angliya mustamlakasi ostidagi hind yozma merosining katta qismini nashrga tayyorlagan mashhur sharqshunos Uilyam Jons b-n tanishadi. Siyosiy topshiriq b-n Eronda (1811–14), Sankt-Peterburg (1814–15)da bo'ladi. Aka-uka Ouselilar Buyuk Britaniyada sharqshunoslikka asos soladilar. O.S.G.ning "Fors shoirlarining biografik eslatmalari" (Biographical Notices of Persian Poets, 1846) kitobi vafotidan so'ng chop etilgan bo'lib, unda 31 ta fors shoirlari haqida ma'lumot berilgan. Davriy ketma-ketlikka rioya qilinmagan. Kitob mundarijasida har bir adib "Xoja Hofiz Sheroziy devoni" singari nomlanadi. N. haqidagi ma'lumot kitobda to'rtinchi o'rinda – Sa'diy Sheroziy, Hofiz Sheroziy, Nizomiy Ganjaviydan so'ng berilib, "Amir Alisherning "Buyuk Aleksandr devori" asari" tarzida nomlangan (50–53). Matnda N.ning tarjimayi holini ham yoritadi. Turkiy adabiyotda tengi yo'q, Husayn Boyqaro, Jomiy, Husayn Voiz Koshifiy, Davlatshoh Samarqandiy o'z asarlarida N.ni ta'riflagan kabi ma'lumotlarni qayd etadi. Dehlaviy, Nizomiy dostonlari ta'siridagi dostonlari, to'rt devonini nomma-nom sanaydi. "Iskandar devori" kitobi 202 sahifadan iborat, Sultonning xattoti Muhammad Ali tomonidan 1552-y. (hijriy 960) Buxoroda ko'chirilgan, miniatyuralar ishlangan, oltin hal b-n ziynatlangan, deb ma'lumot beradi. Ma'lum bo'ladiki, u "S.I." qo'lyozmasidan foydalangan, biroq asar matni b-n qanchalik tanish bo'lgani aniq emas. Farididdin Attor qismida uning qabrini Amir Alisher ta'mirlatdi, deya eslaydi (241). N. haqidagi ma'lumotlar fors tilidagi manbalardan olgan. O.S.G.ning N. tarjimayi holi, faoliyati, ijodi borasida qaydlarida ayrim g'arblik tadqiqotchilar yo'l qo'ygan kamchiliklar yo'q. Angliyada N. asarlarini kataloglashtirgan Charlz Riyodan O.S.G.ning 50 yosh kattaligi va mazkur kitob undan ilgariroq nashr etilganini inobatga olsak, N. ijodi Angliyada ancha oldin boshlangan, deyish mumkin. Ko'rinadiki, N. Yevropaga fors shoirlari qatorida kirib borgan va har ikki tilda tengi yo'q shoir, oliyjanob shaxs sifatida e'tirof etilgan.

Ad.: *Sir Gore Ouseley, Biographical Notices of Persian Poets with Critical and Explanatory Remarks, with a Memoir of the late Right Hon. Sir Gore Ouseley, baronet, by James Reynolds, London, 1846.*

O.T.

OFOQ (ar.– ufqning ko‘pligi) – dunyo, olam.

Skandarki donoyi ofoq edi,
Bilik ichra ofoq aro toq edi.

O. tasavvufiy ma’noda irfoniy sayr-u suluk muqaddimalaridan biri. Sayr ul-ofoq va anfus hisoblanadi. O.va anfus – katta va kichik olam. O.– moddiy, anfus ma’no va ko‘ngil olami. Bu aslida Qur’oni Karimga asoslangan dasturdir. Haqiqiy ilm va ma’rifat shu yo‘l b-n hosil bo‘lishi jihatidan uni tariqat muridi sayrining asosi hisoblaydilar.

“S.I.” dostonidagi 59-bobda Arastu Iskandarning inson tabiati haqidagi savoliga shunday javob beradi:

Taboye’ki, ofoq-u anfusda bor,
Borin to‘rt tab’ ettilar e’tibor:

Isiq, sovuq, o‘l-u quruq fahm qil,
Ani o‘t-u suv, yel-u tufroq bil –

Ki, inson bulardin murakkabdurur,
Jame’yi milalg‘a bu mazhabdurur.

Majoziy: moddiy va ma’naviy olamdagi tabiat issiq, sovuq, ho‘l va quruqdan iborat bo‘lib, u 4 unsur – o‘t, suv, havo va tuproq b-n bog‘liq. Lekin inson bulardan murakkab bo‘lib, biror millat bundan mustasno emas.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Сажжодий. Фарҳанги истилоҳот ва таъбироти ирфоний. – Теҳрон, 1370. (ҳ-ш); Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005;*

E.O.

OFOQBEGIM (XV asr 2-yarmi – XVI asr boshlari) − shoira. Tazkiralarda O.ning ismi Ofoq bika, Begiy shaklida uchraydi. N.ning tog‘asi Hasan Ali Jaloyirning qizi, ukasi Darvesh Alining xotini bo‘lgan. Otasi temuriylardan Yodgor mirzo xizmatida bo‘lgan va ancha nufuzli arboblardan sanalgan. N. O.ning Mir Husayn Ali Jaloyir (taxallusi “Tufayliy”) va Muhammad Ali Jaloyir (taxallusi “Nisoriy”) degan ikki og‘asi haqida “M.N.”da ma’lumot beradi. Faxriy Hirotiy esa bu asar tarjimasiga o‘zidan qo‘shgan to‘qqizinchi majlisda shoira haqida ma’lumot beradi. Unga ko‘ra O. yaxshi shoira bo‘lgan. Undan bir necha matla’, ruboiy va fardlar yetib kelgan. Aytishlaricha, O. hassos va hozirjavob shoira sifatida xalq orasida mashhur bo‘lgan. U, asosan, fors-tojik tilida she’rlar yozgan. Darveshali Balx hokimi bo‘lgan davrda ijod ahliga homiylik qilgan. Manbalarda uning hozirjavoblik b-n badiha tarzida aytgan go‘zal ruboiy va baytlari saqlanib qolgan. Jumladan, Faxriy Hirotiy “Radoyif ul-ash’or” (“Radifli she’rlar”) tazkirasida she’rlaridan namunalar keltiradi. Chunonchi:

Oh, az on zulfe, ki dorad rishtayi jon tob az o‘,
Voy az on la’le, ki har dam maxo‘ram xunob az o‘.

Tarj.: Oh u zulfdanki, jon rishtasi uni deb azob chekadi, voy u labdanki, har lahza u tufayli ichganim qondir.

Quyidagi ruboiysi ham mashhur:

Obe, ki falak ba lab chakonad moro,
Sargashtayi bahr-u bar davonad moro,
Ey kosh, ba manzile rasonad moro,
K-az hastiyi xud boz rahonad moro.

Tarj.: Bu falak labimga bir qatra suv tomizish uchun butun dunyo bo‘ylab sarson-sargardon qiladi. Ey koshki, meni o‘zligim qaydidan xalos qilsa-yu, bir manzilga yetkazsa edi.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Фахрии Ҳиравий. Жавоҳир ул-ажоиб. – Хўжанд, 2007; Абдуқодиров А. Амир Алишер Навоий. – Хўжанд, 2003; Минг бир рубоий. – Т., 2009; Суйима Ғаниева. Шоҳ қизи эрсамда... – Т., 2006.*

S.G‘., ***E.O., B.R.***

OCHILOV Ergash (1965, Buxoro) – adabiyotshunos, tarjimon. 1989-y. da O‘zbekiston Milliy universiteti (sobiq ToshDU) ning Jurnalistika fakultetini tugatgan. 1984–1992-yy.da Toshkent shahar kitob savdosi idorasida ekspeditor bo‘lib ishlagan. 1992-y.dan hozirga qadar O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutida xizmat qilib kelmoqda. 2000-y.dan “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalining mas’ul kotibi. 1994-y.da “Ruboiy tarjimasida shakl va mazmun birligi” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi, tasavvuf she’riyati, adabiy aloqalar hamda forsiy va turkiy adabiyotdan o‘zbek tiliga she’riy tarjima masalalari b-n shug‘ullanadi. “Muborak sarchashmalar” (1997), “Bir hovuch dur” (2011), “Alisher Navoiy” (2011, 2013 (to‘ldirilgan nashri), 2015 (lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida), “Bobur” (2011), “Ubaydullaxon” (2011, hammualliflikda), “Barhayot siymolar” (2012), “Zahiriddin Muhammad Bobur” (2012, 2015 (lotin yozuvida), “Pahlavon Mahmud” (2013, 2015 (lotin yozuvida), “Maxtumquli” (2015) risolalari, “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” (2012), “Badiiy tarjima masalalari” (2014), “Tarjimashunoslikning nazariy masalalari” (2014), “Tarjima nazariyasi” (2014) o‘quv qo‘llanmalari, “Forsiydan o‘zbekchaga she’riy tarjima muammolari” (2013) monografiyasi, “Tarjimashunoslik terminlarining izohli lug‘ati” (2014) chop etilgan. Uning tarjimasida Mullanafasning “Muhabbat fasli” (2010), Abdurahmon Jomiyning “Muhabbat mazhabi” (2011), Umar Xayyomning “Tiriklik tilsimi” (2012), Maxtumqulining “Ustozingdan ayrilma” (2012), “Hikmatlar” (2013, 2015 (lotin yozuvida), “Asarlar” (2013), “Bulbul nolasi” (2014), Nasimiyning “Men bu jahonga sig‘masman” (2012, hammualliflikda), Sa’diy Sheroziyning “Hayot hikmati” (2013), Adib Ahmad Yugnakiyning “Hibat ulhaqoyiq” (2013), Jaloliddin Rumiyning “Muhabbat ma’vosi” (2013), “Afg‘oniston xalqlari og‘zaki she’riyatidan namunalar” (2014) to‘plamlari nashr qilingan. U 200 dan ortiq forsiyzabon shoirlarning 10 000 dan ortiq ruboiylarini tarjima qilib, “Ishq daftari” (2000), “Muhabbat taronalari” (2005), “Donishmandlar tuhfasi” (2009), “Ming bir ruboiy” (2009), “Ruboiy gulshani” (2010) nomlari b-n e’lon qilgan. 500 dan ortiq ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalari chop etilgan. Jumladan, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”da 60 ga yaqin, “Alisher Navoiy ensiklopediyasi”da 200 ga yaqin maqolalari nashr qilingan. 10 dan ziyod maqola va tezislari Rossiya, Eron, Turkiya, Turkmaniston, Qirg‘iziston, Tojikistondagi nufuzli nashrlarda bosilib chiqqan.

O.E. Alisher Navoiy hayoti va ijodini o‘rganish, asarlarining ommabop nashrlarini o‘quvchilarga yetkazish bo‘yicha qator ishlarni amalga oshirdi. M-n, “Alisher Navoiy” nomli shoir hayoti va ijodi haqida hikoya qiluvchi ilmiy-ommabop risolasi bir necha marta chop etildi (2011; 2013; 2015). N. g‘azallari va baytlari sharhlangan maqolalardan iborat “Bir hovuch dur” to‘plami kitobxonlar tomonidan iliq kutib olindi (2011). U mutafakkir shoirning turli shakl va hajmdagi bir necha hikmatlar to‘plamini nashr qildi (2006; 2010; 2011; 2012; 2013; 2014; 2015). Shoirning mashhur va qo‘shiqqa aylangan she’rlari asosida to‘plamlar tayyorladi (2011; 2013). N.ning 10 jildlik “TAT” u-n “M.A.” asarini nashrga tayyorladi. “D.F.”dagi 64 ta qit’ani nasriy, 72 ruboiyni she’riy, shuningdek, g‘azallaridan namunalar tarjima qildi. Shoirning hayoti va ijodi, asarlarining badiiyati va obrazlar olami, asarlarining tarjimalari, N. va adabiy aloqalar mavzularida 100 ga yaqin maqolalari vaqtli matbuotda va turli ilmiy to‘plamlarda bosilib chiqqan. “Alisher Navoiy ensiklopediyasi”ning faol mualliflaridan biri.

Ad.: *Очилов Э. Алишер Навоий. – T., 2011; 2013; 2015; Очилов Э. Бир ҳовуч дур. – T., 2011; Алишер Навоий. Ҳикматлар. – T., 2006; 2010; 2011; 2012; 2013; 2014; 2015;*

Алишер Навоий. Бир парипайкар ғами. – Т., 2006; Алишер Навоий. Ишқ тилсими. – Т., 2011; Алишер Навоий. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Мубтало бўлдум санга. – Т., 2013.

M.A.

OSHNOLIK – Allohga bog‘liqlig-u o‘zidan begonalik. Xudoga uns – yaqinlik maqomida bo‘lish. Ilohiy sirlar va hikmatlardan ogohlik darajasiga yetish. Ayni maqomdagi solikni ogoh, voqif, oshno deydilar. Oshno bo‘lmaganlar begona, yot deb ataladi. “M.Q.” pandnomasining “Zuhd zikrida” faslida bu haqida shunday yoziladi:

“Har solikkakim, bu maqom dorig‘ay xilqati riyozat nuri bila nafsoniyat lavsidin orig‘ay. Ko‘ngli uyig‘a oshnolig‘ sham’idin nur yetgay va ul nur partavi aning ko‘ngluni masrur etgay”.

“N.M.” tazkirasida keltirilishicha, Muhammad b. Yusuf Banno hamisha xufton namozidan keyin xonasiga kirib, “manga o‘z oshnolig‘ingni va ma’rifatingni nasib qil!” deb Xudoga iltijo qilar ekan.

Tazkiraning Shayx Abulabbos Nihovandiyga bag‘ishlangan fiqrasida shunday voqea keltiriladi: “Bir tarso eshittikim musulmonlar arosida farosat ahli bo‘lur. Bu toifa libosi bila Shayx Abulabbos Qassob (q.s.) xonaqohiga bordi. Shayx ani ko‘rgach dedikim, begonalarg‘a oshnolar orasida ne ish? Ul tarso xijolat bila chiqib, Shayx Abulabbos Nihovandiy xonaqohig‘a bordi”.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Сажжодий. Фарҳанги истилоҳот ва таъбироти ирфоний. – Теҳрон, 1370 (ҳ-ш.); Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005;*

E.O.

OYAT – Belgi, nishona, dalil, hujjat. 2. Qur’on suralarining ma’lum qismlarga bo‘lingan jumlalari. Qur’onda olti ming olti yuz oltmish olti O. borligi aytiladi. N. o‘z asarlarida mavzuga tegishli bo‘lgan Qur’on oyatlarini to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki bir parchasini iqtibos qilib keltiradi. Yoki kerakli jumlalarda, hikmat va o‘gitlarida O.lar mazmunini singdirish b-n kifoyalanadi. O. lardan eng ko‘p istifoda etgan asari “T.A.H.”dir. Ma’lumki, aqidada butun Qur’on O.larini e’tirof etsa, uning ilohiy kalom ekanligiga ishonsa, ammo bitta O.ini inkor etsa, kofir hisoblanadi. N. ham yozadiki, agar bir kishi Zamaxshariyning “Kashshof” tafsirini sharhlasa-yu, bir oyatga amal qilmasa, go‘yoki, qilgan ishi ham e’tiqodi ham “yo‘q”dek gap, befoyda, behudadir.

Amal bir oyat ila aylamas, chu yo‘q taqdir,
Biravki aylasa “Kashshof”da o‘zin shorih.

N. O. so‘zini istiora sifatida ham qo‘llaydi. Taqdir kotibi – Alloh qadarida ishq O.ini, ya’ni oshiqlik qismatini yozganligini ta’kidlaydi.

Yozg‘anda yuzung mushafini kotibi taqdir,
Ishq oyatini qildi mening sha’nima imlo.

Sha’nida nuzul oyati shar’,
Adli bo‘lubon himoyati shar’.

Yozib jon mushafidin ikki oyat,
Debon Farhod-u Shirindin hikoyat.

O. so‘zi shoirning nasriy asarlarida ham ko‘zga tashlanadi. Abu Sulaymon Doroniy degan shayx karomot haqida aytadiki: “Ko‘pincha haqiqat (kashfu asror) qalbimda qirq kunlab uloqib yuradi. Ularni faqat ikki guvoh: oyat va hadis asosidagina qalbimdan joy olishiga ruxsat beraman”. “...va kitobning xutbasin bu oyat bilan ibtido qilibdurki...”: “Robbi anzilni munzalan muborakan va anta xayr ul-munzilin”.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик, 2-жилд. – Т., 1983.*

S.R.

OQOR – o‘zbek-turkiy urug‘laridan birining nomi. Ablug‘ozi Bahodirxon keltirgan jadvalda O. atamasi o‘zbek urug‘ va qabilalari sirasida

“og‘ar” tarzida uchraydi. Z.V.To‘g‘on mazkur urug‘ nomini anglatuvchi lafzni “Ag‘ir” (“Og‘iran”) shaklida taqdim etgan. N.ning “N.Sh.” devonida boshqa urug‘ nomlari b-n birga uchraydi.

Ey Navoiy, manga bas ul sanami lo‘livash,
Bekka qipchoq-u oqor, shahga qiyot-u bilgut.

Baytdan ma’lum bo‘ladiki, N. qipchoq – o‘zbeklar toifasiga kiruvchi qiyot, qo‘ng‘irot, oqor, yuz, ming, bilgut, mang‘it singari urug‘ va qabilalarning vakillarini barloslar b-n bir qatorda, balki ayrim hollarda ularga nisbatan ham ko‘proq jamiyatni boshqarish ishlarida qatnashib kelayotgan nufuzli va nasabli kishilar – jamiyat zodagonlarining vakillari, deb hisoblagan.

Ad.: *Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2011; Заки Валидий Тўғон. Ўзбек уруғлари. – Т., 1992.*

S.O‘

“OQQUYUNLI MUXLISLAR DEVONI” – 2010-y.da manbashunos olim A.Erkinov tomonidan Misrdan topilgan va faksimel nusxasi 2014-y.da olimning Tokio xorijiy tillar universiteti qoshidagi Osiyo va Afrika madaniyatlari va tillari universiteti mehmon professori bo‘lib faoliyat yuritishi jarayonida Yaponiyada nashr etilgan. Qo‘lyozma Qohiradagi Misr Milliy kutubxonasi – Dorul kutubda saqlanadi. Devon 1471-y. Oqquyunlilar saroyi markazi bo‘lgan Sherozda oqquyunli hukmdorlar buyrug‘i ostida Anisiy taxallusli shoir va xattot Abdurrahim ibn Abdurrahmon Xorazmiy tomonidan ko‘chirilgan. Kitobga yozilgan so‘zboshida devon haqida batafsil ma’lumot berilgan. Unda devonning yaratilish tarixi, tuzilgan yili, tarkibiy tuzilishi haqidagi dalillar ko‘rsatilgan. Devon haqidagi ilk ma’lumot 1935-y. nashr etilgan Qohira kutubxonasidagi rasmli qo‘lyozmalar fehristiga kiritilgan. Qo‘lyozmaga 2 ta miniatyura ishlangan bo‘lib, kitobning A.Erkinov tomonidan aniqlanishi ham ayni shu suratlar b-n bog‘liq. Qo‘lyozmada N.ning jami 229 ta she’ri: 224 ta g‘azal, 1 ta mustazod, 3 ta muxammas, 1 ta tarji’bandi mavjudligi jadvalda ko‘rsatilgan. Anisiyning otasi, ukasi ham xattot bo‘lgani, Som Mirzo Safaviyning ta’rificha, husnixatda Sultonali Mashhadiydan qolishmagan, unga raqobatda o‘zlarining nasta’liq uslubini ishlab chiqishgan, Sheroz xattotlari ular uslubida ijod qilgani aytiladi. Shu ma’noda qo‘lyozma o‘rta asrlardagi ikki uslub – sharqiy/Mashhadiy, g‘arbiy/Anisiy maktablari o‘rtasidagi farqni qiyoslash u-n ham qimmatli manba hisoblanadi. Asosiysi, kitob N. ning muxlislari tuzgan “Ilk devon” b-n birdek qimmatga ega bo‘lib, shoirning muxlislari tomonidan tuzilgan 2-devoni ekanligi va ilk lirikasiga doir manba sifatida ahamiyatli. Umuman, so‘zboshida kitobga tegishli barcha ma’lumotlar qayd etilgan. A.Erkinov rahbarligida devon R.Jabborov tomonidan tadqiq etildi (2020). So‘zboshidan so‘ng kitobning fotonusxasi ilova qilingan. Mazkur kitob N. ijodining Hirotdan o‘tib, Sheroz, Tabrizda ko‘chirilgan, hozirda Misrda saqlanayotgan noyob nusxasini ilm-fan ahliga tanitishi jihatidan qimmatli manbadir.

Ad.: *Alisher Navoiy. Oqquyunli muxlislar devoni (1471). – Tokyo: Institute for Languages and Cultures of Asia and Africa, 2015; Сирожиддинов Ш., Юсупова Д., Давлатов О. Навоийшунослик. – Т., 2018.*

S.O‘.

OQ SO‘NGAK – uzoq asrlik tarixga ega bolalar o‘yini bo‘lib, bu haqida mashhur tilshunos Mahmud Koshg‘ariy ham ma’lumot bergan. O‘yin, asosan, kech kirib, qorong‘i tusha boshlagandan so‘ng o‘ynalgan. O‘yin qoidasiga ko‘ra, bolalar 2 guruhga bo‘linadi. Birinchi tomon teskari o‘girilib, ko‘zlarini chirt yumib turadi. Ikkinchi tomondagi bolalardan qulochi kattarog‘i molning bir qarich oppoq suyagini qulochkashlab otib yuboradi. Suyak tushgan yerdan chang ko‘tarilgan. Chang bosilgach, “Bo‘ldi” deb raqiblarining o‘girilishlari mumkinligiga ruxsat berishgan. Raqib tomon, har tarafga yoyilib, suyakni izlab ketadi. Suyak otgan bolalar qatorlashib o‘tirib, ularni ku-

tadi. Bolalar suyakni izlab topishlari lozim bo‘ladi. Agar topa olmasalar, suyak otgan bolalarning o‘zi topib berib, ularni sarson qiladi. Endi suyak otish gali uni topib kelganlarga. Buni oqsuyak o‘yini deyiladi. N. “M.Q.” asarining “Odil salotin zikrida” nomli ilk faslda mazkur o‘yin nomini tilga olar ekan, yurtga adolatli sulton hukmronlik qilganda, bolalar kechalari ham emin-erkin bo‘lishlariga ishora qilib, atayin “O.S.” deb atalgan o‘yin nomini keltirib o‘tadi: “Andin kechalar atrok zuafosi ishi o‘rg‘ushtak va atfol varzishi oq so‘ngak. Ajuzlar charx uni maddi bila aning duosig‘a nag‘masoz va kanizaklar momuq sabamoq uni bila aning olqishig‘a nag‘mapardoz. Fuqaro ishi anga hamdu ova ham nozish,aning da’bi fuqarog‘a ham saxo va ham navozish”. Tog‘ay Murodning “Davra” qissasida mazkur o‘yin haqida batafsil ma’lumot berilishidan ham ma’lum bo‘ladiki, bu o‘yin Surxondaryo vohasida bugungi kungacha ham o‘ynab kelinadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Кошғарий М. Туркий сўзлар девони (Девону луғоти-т-турк). 3 жилдли; Тоғай Мурод. Давра. Қисса. – Т., 1987.*

S.O‘.

OQ UY – N. “M.L.”da o‘zbek va fors tillarini qiyoslar ekan, o‘zbek tilidagi ayrim atamalarni forslar turkiylardan olganligini ko‘rsatish maqsadida O.U. atamasining 11 ta qismini qalamga oladi. “Bir mutaayyin nimakim oq uydur, anga xirgoh ot qo‘yupturlar. Ammo aning ajzosining ko‘pini turk tili bilan ayturlar. Andoqki, tungluk va uzuk va to‘rlug‘ va bosrug‘ va chig‘ va qanot va ko‘zanak va o‘g‘ va bog‘ish va bo‘sag‘a va ergana va alo hazal-qiyos”. Bu iqtibos shoirni O.U. va uning qismlarini yaxshi bilganligini, unda dam olganligini ko‘rsatadi. N. O.U.da dam olishdan tashqari, uni qurish va tiklashda ham qatnashgan bo‘lishi ehtimoldan uzoq emas. Chunki shoir g‘azal va dostonlarida hayotiy lavha yaratishda O.U.ning ayrim qismlaridan foydalanadi.

Avvalo, O.U. haqida. O.U. ikki (oq+uy) qismdan iborat bo‘lib, qadimda chorvadorlarning yozda salqin, qishda issiq boshpanasi hisoblangan. Bu boshpananing O.U. deyilishiga sabab, o‘zbek qomusida yozilishicha, uning ustiga oq kigiz yopilgan. Kigiz ustidan esa oq mato qoplangan va u oq arqonlar b-n bog‘langan. O.U. N. asarlarida ko‘p uchraydi. “S.I.”da:

Vale bazm yuz boshliq oq uy aro,
Oq uy tashtun-mushki birla qaro.

Maz.: O.U. ichida yuz kishi bazm qilardi. Uning tashqi tomoni tun qorong‘uligi b-n qaro edi.

“S.I.”dagi quyidagi baytida oq uyning to‘rt qismi, chunonchi, yorug‘ tushib turadigan – tungluk, eshik, panjara – ko‘raga, o‘rin-to‘shak – yuk so‘zlari uchraydi:

Oq uyga eshik rust, tungluk dogi,
Bo‘lub ko‘raga ev davriga to‘k dog‘i.

Maz.: O.U.da mustahkam eshik, tungluk, ko‘raga, shuningdek, uy ichida yuk bor edi.

O.U.ning keraga b-n chang aroqni biriktirib turuvchi yog‘ochi – ug‘ “F.K.”da uchraydi:

Ko‘ngulda o‘qlaridin oq uy aylasam, ne ajab,
Ki ko‘nglum ichra vatan qildi mohi xirgohi.

Maz.: Ko‘nglumga ug‘lar tikib, oq uy yasasam, ne ajab? Sababi ko‘nglim ichiga chodirdagi oy vatan qildi.

O.U. atrofiga tutiladigan qamish to‘siq – chig‘ “B.V.” da uchraydi:

Parda ketgach, men zaif-u izorga oson erur,
Yo‘llaridin chig‘ning solmoq o‘zumni ichkari.

Maz.: Parda olingach, men notavonga oson bo‘ldi. Yo‘ldagi qamish to‘siqni olib ichkari kiraman.

O.U. ichidagi to‘r parda; – to‘rlug‘ “B.V.”da uchraydi:

Ichkari ul oy tuvurlug‘ni ko‘tarmaslar, netay.
Ey sabo farroshi, bir lutf aylabon ul yondari.

Maz.: Ul oy ichkari to‘rlug‘ni ko‘tarmasa, nima qilay? Ey sabo farroshi, bir kulib, uning oldiga bor.

O.U.da hurmatli mehmonlar o‘tiradigan joy — to‘r so‘zi “F.Sh.”da uchraydi:

To‘rida borgahning bir biyik taxt,
Aning ustida bir shohi javonbaxt.

Maz.: Chodirning to‘rida baland taxt, Uning ustida baxtli yosh shoh o‘tirardi.

Bo‘sag‘a so‘zi “M.”da uchraydi: “Ko‘ngulda sarig‘ yuzni oltun bo‘sag‘aga surtmak muddaosi benihoyat edi”.

Bog‘ish – o‘tov ostonasi “S.S.”da uchraydi:

Qildi bog‘ishda o‘lturub bunyod,
Shoh duosiniki: “Charxi ko‘hna nihod”

Ko‘zanak – oq uy tuynugi “B.B.”da uchraydi.

Ey Navoiy, ul mahi xirgahnishin hifzi uchun
Ko‘zunak ermaski, har sori tikilmish ko‘zlari.

To‘r – uyning to‘ri “M.L.”da uchraydi:

...to‘rki, ondin daqiqroqdur: uyining to‘ridur...

Bosrug‘ – o‘tov tevaragiga yopiladigan kigiz “M.L.”da uchraydi: ...to‘rlug‘ va bosrug‘... Qanot – o‘tovning bir qismi “M.L.”da uchraydi: ...chig‘ va qanot...

Ergana – zina poya “M.L.”da uchraydi: ...bo‘sag‘a va ergana...

Uzuk – o‘tovning havo almashtirishga yordam beradigan tepadagi chambarak qismi “M.L.”da uchraydi: ... andoqki, tungluk va uzuk...

Yuqoridagi misollar shoir xalq hayotini ham yaxshi bilganligini ko‘rsatadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Муҳокамат улуғатайн. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. ТАТ. 10 жилдлик, 1-10-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

E.U.

“OG‘ZINGGA KIRGAN TAKALLUM RISHTASIN...” – “F.K.” devonidan o‘rin olgan qit’a:

Og‘zingga kirgan takallum rishtasin
chekma uzun,
Kim bu ishtin sarnigunluq yuzlanib,
nuqson kelur.
Ko‘rki, chun og‘zig‘a kirgan rishtasig‘a
berdi tul,
Ankabut, ul rishtasin har dam nigunsor osilur.

Og‘izga “kirgan takallum rishtasin” uzun chekmoq – og‘ziga kelganni demoq, vaysaqilik gapbozlik qilmoqdir. N. bir o‘rinda so‘zlamoqa berilgan odam b-n, yemoqqa qul bo‘lgan kimsaning fojiasini bilim sharofatidan mahrumlik deb hisoblagan. Sayoz chechanlik va ezmalik har qanday eshituvchining asablarini egovlaydi. Lekin bu ishdan ko‘p so‘zlovchiga istalgan paytda ziyon yetmog‘i aniqdir. Qit’a shu to‘g‘rida. Sarnigunluq – boshi egiklik. Hojatsiz til burroligi boshni xam qiladi. Buni laqmalik jazosi yoki sharmandalik deyish kerak. “Kim bu ishtin sarnigunluq yuzlanib, nuqson kelur”dagi oxirgi iborani “nuqsonlar kelur”, deb tushunilgani ma’qul. Negaki, ortiq gapiruvchi, xohlang, xohlamang, nuqson orttiruvchidir. Bunday kimsalarga N. o‘rgumchak ahvolini namuna etib ko‘rsatadi:

Ko‘rki, chun og‘zig‘a kirgan rishtasig‘a berdi tul,
Ankabut, ul rishtadin har dam nigunsor osilur.

“Og‘zig‘a kirgan rishtasig‘a” muallaq osilib turgan o‘rgimchakka nigohingiz tushgan bo‘lishi kerak. Ammo bu hodisaning yuzaga kelish sababini o‘ylab ham o‘tirmagansiz. N. sharhlaridan anglashilayotirki, o‘rgimchak og‘zidagi rishtani

cho‘zib, atayin uzaytirgani (tul bergani) u-n ham o‘zini-o‘zi “nigunsor osilur”ga mahkum etarkan. Bu qiyosdan so‘ng birinchi baytdagi ma’no va mantiq ta’siri yanada kuchaydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011 Ҳаққул И. Касби камол ўзни танишдир. – Т., 2021.*

I.H.

OHIY (taxallusi; to‘liq ismi: Mavlono Ali Ohiy Mashhadiy (t.y. va v.y.n. – XV asr, Mashhad) − fors-tojik shoiri. “M.N.”da ma’lumot berilishicha: “X.” muqobalasida necha masnaviy aytibdurkim, chun muqobalag‘a keltursa, go‘yoki bo‘lmas. Ul jihatdin shuhrat tutmaydur. “Xayol va visol” otlig‘ kitobida bir bayti bor, magarkim, mulhimi g‘ayb aning tiliga o‘z she’ri bobida solg‘ondurkim:

She’re, ki buvad zi nukta soda,
Monad hama umr yak savoda”.

Tarj.: Nozik ma’nodan xoli she’r shunchaki bir qora gap bo‘lib qoladi.

Ijod ahliga o‘ta talabchan bo‘lgan Bobur esa “G‘azalni tavre aytur edi, so‘ngralar Ibn Husayn Mirzo qoshida bo‘lur edi, sohibdevondur” deb uning iste’dodini e’tirof etadi.

Mirzo Haydar ham uning ijodiga yuksak baho beradi: “uning she’rlari nihoyatda chiroyli va silliqdir. Aytishlaricha, ular usluban Mir Shohiy she’rlarini esatadi. U juda yaxshi devon tartib bergan. She’rlaridan namuna, bayt:

Faxr etarman ko‘zlarim-la: u yuzing
ko‘rgan seni,
Oyog‘imdan aylanay − yoningga
yetkazgan seni”.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Муҳаммад Ҳайдар Мирзо. Тарихи Рашидий. – Т., 2010; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 2. – Душанбе, 1989; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 2002.*

E.O.

P



PAVE DE KURTEYL Abel Jan Batist Mari Mishel (Abel Jean Baptiste Marie Michel Pavet de Courteille; 1821–1889, Parij) – fransuz sharqshunosi, tarjimon, turkolog, tilshunos olim. Fransiya kolleji prof. (1854), Osiyo jamiyati, Fransiya FA a'zosi, Sankt-Peterburg FA muxbir a'zosi (1887). Kurteyl turkiy tildagi qo'lyozmalarni o'rganish va tarjima qilish borasida salmoqli ishlarni bajargan. Jumladan, "Sharqiy turkiy tillar lug'ati" (1870)ni tuzadi, 2 jildli "Boburnoma" (1871), uyg'ur yozuvidagi "Me'rojnoma" (1882), N.ning "T.A.H." (1889) asarlarini tarjima qiladi. Ularga yozilgan so'zboshilarda sharqiy turklarning tili usmonli turk tilidan farqlanishi, ifodalarning boyligi, bu tilda Atoiy, N., Mir Haydar, Bobur, Abulg'ozi ijod qilganini chuqur hurmat b-n e'tirof etgan. P.K. "Sharqiy turkiy tillar lug'ati" (Dictionnaire turc-oriental) yoxud "Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur va Abulg'ozi Bahodirxon asarlarini o'qish uchun izohli lug'at" kitobida olti mingdan ziyod turkiy so'zlarni fransuz tiliga o'girib, ma'nosini izohlagan. Olim lug'atni tuzishda, asosan, "X.M." va "X."dan foydalangan. Lug'atga yozilgan so'zboshida olim bu ishni bajarishdan ko'zlangan maqsad va asos sifatida olingan tayanch manbalar haqida batafsil ma'lumot beradi. Jumladan, N. she'riyatiga xos shoirona ohangda bu ijodga mahliyo bo'lgani va xayolan N. qarshisida tiz cho'kkanini e'tirof etadi: "Men uning mag'rur sarvlarining kamtar quli bo'ldim, Viqorli binafshalari oldida boshimni egdim. Uning lolalari qalbimga o't soldi va men boshqa bog'lar go'zalligiga befarq bo'ldim. Uning tuprog'idan totor mushkining hidi taraldi: bu Mir-Ali-Shir bog'i edi. Men u yerda charchoqni bilmasdan yurdim, barcha qutblarini ziyorat qildim. Shunda qalbimda bu buyuk ustoz ijodida uchragan hamma so'zlarni to'plash istagi paydo bo'ldi". Ayrim g'arblik olimlarga nisbatan P.K. N. asarlarining asl qiymatini to'laroq anglab yetgan, badiiy mahoratiga tan bergan edi. Lug'atni tuzish jarayonida "Abushqa"ning Konstantinopol nusxasi, H.Vamberining qo'llanmasi ("Cagataische Sprachstudien"), Velyaminov-Zernov lug'ati va Zenker tuzgan lug'atlardan foydalanganini aytadi. Sababi, o'quvchi N.dek buyuk adibning ko'p sonli asarlarini, Abulg'ozi "Shajarayi turk"ini o'qishda qiynalmasin. N. garchi Hirotda tug'ilgan bo'lsa-da, Bobur aytganidek, Andijon tilida yozgan. Lug'atda "Abushqa" muallifining nazmi kitob sababi b-n bitilgan she'rlari ham berilgan. Lug'atda so'zlar alifbo tarzida keladi. M-n, *atog'* – so'ziga *atog'liq* deb qo'shimcha qilib, fransuzcha izohini beradi hamda so'zning ma'no vazifasini anglatish u-n eski o'zbek yozuvida parcha beradi: "Mehr zulfig'a ko'ngli bog'lig' edi. Bu anga go'yiyo atog'lig' edi". Izohda "Son cœur était attaché aux boucles de cheveux de Mihr; il semblait vraiment que ces boucles lui eussent été fiancées", tarzida she'rning erkin tarjimasini qo'shimcha qiladi. Parcha "S.S."dagi Mehr va Suhayl hikoyatidan olingan. Chim harfidagi "chidamoq" so'zini "supporter, patienter" lug'atlari b-n izohlab, "A."dan olingan quyidagi qit'ani misol qilib keltiradi: "Kimki, mo'mindurur, qachon chidag'ay. Kim, o'zi to'q-u qo'shni bo'lg'ay och. Anga dag'i kerak etursa nasib. Xonida gar kulmoch-u, gar umoch". Eski o'zbek yozuvida berilgan matnda "qo'shni"

so‘zi “qo‘ngshu” tarzida yozilgan. Matndagi har bir so‘zni izohlash u-n olim katta mehnat qilgani ko‘rinib turibdi. Buning u-n N. asarlari, Bobur, Abulg‘ozi asaridagi so‘zlarni saralagan, tabiiyki, bu jarayonda asar matni, mazmunini uqish va ayni ma’noni chiqarib berishga intilgan. Rus olimi A.N.Kononov ham P.K.ning mazkur lug‘atini tilshunoslikdagi noyob lug‘at deya e’tirof etgan. Umuman, P.K.ning o‘zbek ilm-fani oldidagi xizmatlari katta. XIX asrdayoq N. asarlari tilini fransuz tilida izohlab, dunyo xalqlariga tanishtirgani n.shunoslik, lug‘atshunoslik, matnshunoslik borasida ham muhim ahamiyatga ega.

Ad.: *Turk-Sharq lug‘ati, Parij, Imperial Matbaa, 1870; Bobur. Baburname. Parij, Maysonnev, 1871-yil. Dictionnaire Turk-Oriental destiné principalement à faciliter la lecture des ouvrages de Bâber, d’Aboul-Gâzi et Mir-Ali-Chir-Nevâï par M. Pavet de Courteille, professeur au Collège de France, Paris, imprimé par l’ordre de l’empereur, a l’imprimerie impériale, 1870; El-Lugat ul-Neva’iye – Dictionnaire Turk--Oriental. Pavet de Courteille. Xurshid Davron kutubxonasi (kh-davron.uz).*

S.O‘.

PAYG‘AMBARLAR (f. – xabar yetkazuvchilar) – Alloh taolo tomonidan Jabroil farishta orqali vahiyni qabul qilib, bandalarga muayyan diniy ta’limot va hukmlarni yetkazuvchi shaxslar.

P. so‘zi arab tilida nabiy va rasul deb qo‘llanadi. Nabiy – arabcha “naba’a”, xabar bermoq so‘zidan olingan bo‘lsa, “rasul” – elchi, risolat yetkazuvchi mazmunini beradi. “Risolat” ning elchilik, payg‘ambarlik, birovga maktub yuborish kabi ma’nolaridan kelib chiqib, muayyan diniy ta’limotlar to‘plami deyish mumkin. Risolatni odamlarga yetkazadigan va o‘rgatadigan kishi rasuldir.

P. nabiy va rasulga ajraladi. Ular orasida farq bor. Alloh kimga osmondan xabar yuborib, uni boshqalarga yetkazishni amr qilsa, o‘sha odam ham nabiy, ham rasul hisoblanadi. Lekin boshqalarga yetkazishni amr etmasa, u rasul emas nabiydir.

Abuzar al-G‘iforiydan rivoyat qilingan mashhur hadisga ko‘ra, P.ning adadi 124 ming bo‘lib, 315 tasi rasullardir. N. ham P. adadi haqida yozadiki: “... ba’zilar 124 ming desalar, boshqalar sakkiz ming deydilar. Shulardan uch yuz o‘n uchi mursal P.dir. Mursal P.ga vahiy Jabroil vositasi bila keladi, mursal bo‘lmagan P. esa ilhom yo tush bila elga rahnamolik qiladi. Ulul-azm (sabot egalari) P.lar shuki, osmoniy kitob nozil bo‘ladi va o‘zlarining yangi shariati bo‘ladi. Xotim ulki, undan so‘ngra P. bo‘lmagay va bu sifat hazrati Muhammad arabiy sallallohu alayhi va alo olihi va ashobihi vasallamga musallamdur, bas”. Lekin N. mursal va “g‘ayrimursal” (mursal bo‘lmagan) P.dan ko‘pining ismlari noma’lum va ular b-n bog‘liq voqealar ham ma’lum emasligi sababidan olimlar kitoblarida yakuniy fikrlar bildirmaganliklarini alohida ta’kidlagan.

Rasul yangi bir shariat b-n keladi. Nabiy yangi shariat b-n kelmaydi, oldingi shariatga ergashadi va insonlarni ham unga amal qilishga chaqiradi. Qur’onda Hazrat P.ga nisbatan nabiy ham rasul ham deb xitob qilingan.

P.lik Alloh tomonidan beriladi, ular Allohning tanlagan bandalari bo‘lib, gunohdan pok, omonatdor erkaklardan tanlab olinadi.

Qur’oni Karimda “Biz har bir payg‘ambarni (hukmlarimizni) o‘z tillarida bayon qilib berishlari uchun shu qavmning ichidan tanlab yuborganmiz” (“Ibrohim”, 4) oyati keltirilgan. Chunki har bir qavmning ichki ahvolotidan shu qavm orasida birga yashagan odamgina mukammal xabardor bo‘ladi. Ikkinchidan, Allohning topshirig‘ini o‘z qavmiga yetkazishda ta’sirliroq usulni yaxshi biladi. Uchinchidan, qavm begona odamga qaraganda o‘zlari tanigan, hurmat qilib yuradigan odamga tezroq va yaxshiroq ergashadi. Qur’oni Karimda 25 ta P. nomi zikr etilgan: Odam (a.s.) 25 marta, Idris (a.s.) 2 marta, Nuh (a.s.) 43 marta, Hud (a.s.) 7 marta, Solih (a.s.) 9 marta, Ibrohim (a.s.) 69 marta, Ismoil (a.s.) 12 marta, Lut (a.s.) 27 marta, Is’hoq (a.s.) 17 marta, Ya’qub (a.s.) 16

marta, Yusuf (a.s.) 27 marta, Shu'ayb (a.s.) 11 marta, Ayyub (a.s.) 4 marta, Zul Kifl (a.s.) 2 marta, Muso (a.s.) 136 marta, Horun (a.s.) 20 marta, Dovud (a.s.) 16 marta, Sulaymon (a.s.) 17 marta, Ilyos (a.s.) 2 marta, Al-Yasa' (a.s.) 2 marta, Yunus (a.s.) 2 marta, Zakariyo (a.s.) 7 marta, Yahyo (a.s.) 5 marta, Iso (a.s.) 25 marta, Muhammad (s.a.v.) 4 marta.

Har bir musulmon odam barcha P.ni tasdiqlashi va ularni barhaq deb e'tiqod qilishi iymonning shartlaridan biri hisoblanadi. P.ning birinchisi – Odam (a.s.), oxirgisi – Muhammad (s.a.v.)dir. Qur'oni Karim va hadislarda ta'kidlanganidek, qiyomatga qadar boshqa P. chiqmaydi. Lekin Muhammad (s.a.v.)dan keyingi o'tgan davrlarda bir necha soxta P. chiqqan. N. P. haqida ma'lumot berib o'tish b-n birga, Odam (a.s.)dan Muhammad (s.a.v.)ga qadar o'tgan yil hisobini ham bayon qilgan: "Va rivoyat budurkim, Odam zamonidin Nuh (a.s.) zamonig'acha ikki ming besh yuz yildur va Nuh davridin Ibrohim Xalil salavot ur-rahmon alayh davrig'acha ming besh yuz yil va Ibrohim (a.s.) ahdidin Muso (a.s.) ahdig'acha to'rt yuz oltmish yil va Muso (a.s.) chog'idin Iso (a.s.) chog'igacha ming to'quz yuz o'tuz yil va Iso (a.s.) ayyomidin Hazrat Risolat (s.a.v.) farxunda ayyomig'acha yuz sakson yil voqe'dur".

N. she'riyatida payg'ambarlar timsoli va ularga xos bo'lgan fazilatlarni talmeh, tashbeh, iqtibos, aqd kabi san'atlar vositasida tez-tez tilga oladi. Shoir P.ga eng ulug' insonlar sifatida munosabat bildiradi va ularning tarixiga to'xtaladi. Ikkinchidan, she'rlarida ularga xos bo'lgan fazilatlarni keltirish orqali (M-n, Yusufning go'zalligi, Ayyubning sabri, Sulaymonning davlati) o'zining ishqiy va hayotiy kechinmalarini bo'rttirib yoki qiyoslab ifoda etadi.

Nuh umri-yu Sulaymon mulkiga yo'qtur baqo,
Ich, Navoiy, bodakim olam g'ami behudadur.

Uchinchidan, axloqiy masalalarga to'xtalar ekan, hikmatli so'zlarida P.larning qavmlarida sodir bo'lgan yaxshi va yomon xulqlarni misol qilib keltiradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Ислом энциклопедияси. – Т., 2004; Носириддин Бурҳониддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. 1-2-китоблар. – Т., 1990 –1991; Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Ҳадис ва ҳаёт. 20-жуз. Анбиёлар қиссаси. – Т., 2007; Раҳматуллоҳ қори Обидов. Пайғамбарлар тарихи исломият тарихидир. – Т., 2005; 1-2-китоб; Раҳматуллоҳ қори Обидов. Қуръони Каримда Ийсо пайғамбар сиймоси. Монография; Пайғамбарлар тарихи (исломият тарихи) – Т., 2014.*

S.R.

PARVIN – yulduzlar turkumi. N. asarlarida P. istilohi turli munosabat b-n tez-tez uchraydi. Hulkar, Paran, arablar Surayyo deb ataydilar. Falak nargisi ham deyiladi. Aslida, Savr burjining tepa qismida, Hamal burjining dumida joylashgan tarqoq yulduzlar to'dasi. Shoir "G'.S." devonida shuning u-n P.ni tasbeh donalariga tashbeh etadi:

Shar'siz xoshok aro xashxoshdekdur, ey hakim,
Ko'kka chiqsang jaybing ichra subhayi
Parvin solib.

Maz.: Ey donishmand, P. yulduzlarini tasbeh o'rnida cho'ntagingga solib, ko'kka chiqsang-u, din nizomlariga bo'ysunmasang, ular o't ichidagi ko'knori urug'lari singari arzimasdir. Kishi shariat yo'lida yurmasa, P. yoki boshqa yulduzlar ilmini o'rganib olib, ulardan to'g'ri maqsadda foydalanmasa, samoni zabt etganining ham, o'rgangan ilmining ham hech bir naf'i yo'q, aksincha, ko'knori odamlarni sarxush qilib, zalolatga eltgani singari ishdir.

Astronomiya fanida Qamar (Oy)ning 28 manzilidan biri P. deb ataladi. Mumtoz adabiyotda ma'shuqaning yuzi oy bo'lsa, xoli P.lardir. N.ning "N.Sh." devonidan olingan bir baytda ana shu ma'lumotga ishora qiluvchi tasvir mavjud:

Titraguch gavharlari boshingda erkin, yo magar
Oy boshinda hay'ati Parvin musavvarmu ekin?

Anglashilishicha, shoir oldingi baytlarda ma’shuqaning bezaklariga bir-bir to‘xtalarkan, mazkur satrlarda tillaqoshida o‘ynab turgan gavharlarni P. yulduzlar hay’atining Oy atrofida joylashuviga o‘xshatadi. Ko‘rinadiki, N.ning osmon jismlariga oid bilimlari nihoyatda teran bo‘lgan va uning tasavvur va taxayyul olami beqiyos darajada hayratlanarlidir. Boz ustiga, ularni o‘z o‘rnida mahorat b-n qo‘llash orqali asarlarining poetik qimmatini oshirgan.

P. adabiy matnlarda, xususan, N. devonlarida ma’shuqning ko‘zyoshlari, tishlaridan ham kinoya qilinadi, chunonchi, bu tasvir quyidagi misralardagi yuz, tun, durri ashk – oy, qaro tufroq, P. juftliklarida ayon bo‘ladi.

Yuzung vasfin deb o‘tkan tun durri ashkim
to‘kar erdim,
Tutub tog‘ keynin oy kirdi, qaro tufroqqa
Parvin ham.

“B.V.” devonida qo‘llanilgan P. b-n aloqador “Xo‘shayi Parvin” – “parvin boshog‘i” birikmasi bu yulduz turkumining bir shoda ekanligini tasdiqlaydi:

Titraguch ermas murassa’kim, quyosh boshi uza
Xo‘shayi Parvin shioyi xat aro qilg‘il makon.

P. b-n bog‘liq shoir tafakkur olamidagi manzaralar dostonlarida yanada jonli va hayratomuz bo‘lib, Layli b-n Majnun ilk marta uchrashib qolgan bog‘dagi daraxtlar shunchalar balandki, go‘yo P. – Hulkar yulduzlar shodasi uning mevalaridir, degan mazmundagi mubolag‘ali tasvir ishonarli ham ta’sirchandir:

Har naxli falakka tegurub bosh,
Parvin bila xo‘sha aylabon fosh.

Maz.: Bu bog‘da o‘sgan har bir daraxt shunday yuksalgan ediki, Hulkar yulduzi uning mevalaridek ko‘rinardi.

Shu asarning boshqa bir o‘rnida esa Majnun Laylining qabilasi tomon kelib, uning iti b-n suhbatlasharkan, jonivorga qarata: “Kaftlaring tushgan yerni el nasrin guli va izlaringni Hulkar yulduzi turkumi, deb anglardilar”, – deydi. Shubhasiz, shoirning qahramonlaridagi insoniylik, mehr, himmat, rahmdillik kitobxonning ma’naviy olamini oziqlantiruvchi ahamiyatga ega:

Nasrin debon el kafing makonin,
Parvin deb ulus izing nishonin.

P. “S.I.” dostonida esa N. asarlarida tez-tez uchraganidek, uzum boshining qip-qizil donalariga qiyoslangan:

Uzum xo‘shasi birla ahli rasad,
Sipehr uzra Parvin ko‘rub beadad.

Ya’ni, yulduzlar olamini o‘rganuvchi munajjimlar uzum donalarini ko‘rib, osmonda P.ning son-sanog‘i yo‘q ekan, deb o‘ylaydilar. Haqiqatan, hozirgi fan P. turkumi nihoyatda yarqiroq, qizilga moyil, oddiy ko‘z b-n 6-9 ta yorug‘ yulduzni ko‘rish mumkin bo‘lsa-da, to‘dada 540 ta yulduz borligini aniqladi. Chunonchi, P.ning falakdagi joylashuvi, Oyning atrofida saf tutishi “S.I.”da Iskandar va Chin xoqoni qo‘shinlari yuzlashgan tunda shunday manzaralashtirilgan:

Hamul xayli Parvin o‘zin ko‘rguza,
Taloya kibi chiqti gardun uza.

Maz.: Kun botgach, xuddi qo‘shinni qo‘riqlovchi tungi posbonlar kabi Parvin to‘dasi samoda ko‘rina boshlaydi. “V.”dagi tasvirlar ham yuqoridagi lirik ifodalarga hamohang: “...ro‘zgori kafofig‘a parvindek bir ovuch dona tergongacha na yasog‘liq aro boyliq marg‘zori ichra har suruk qo‘ydin yilda hamaldek ming qo‘zig‘a qone’ bo‘lmag‘ondi yo‘qsizlik shiromlarida qo‘y kutib, yilda jadidek, besh o‘chku muzd olg‘onni g‘animat bilgongacha kishi oz topilg‘aykim, bu notavon bila ishi tushmamish bo‘lg‘ay”.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011;*

Муҳаммадҳусайни Бурҳон. Бурҳони қотеъ. Луғат. – Жилд 2. – Душанбе, 2004; Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlügü. – Istanbul, 1995.

S.O‘.

PARVONACHI – oliy darajadagi saroy amaldorlaridan biri; hukmdor amr-u farmonlarini bituvchi kotib; shoh yoki xonning yorliqlarini amirlar va boshqa amaldorlarga yetkazib turuvchi saroy xizmatchisi; vazir muovini. M-n, Majdiddin Muhammad bir necha yil Husayn Boyqaro saroyida P. bo‘lgan. Jumladan, N. Husayn Boyqaroning to‘ng‘ich o‘g‘li Badiuzzamon Mirzoga yo‘llagan maktublaridan birida yozadi: “Yana ulkim, beklarga va devonlarg‘a basa parvonachi va muhrdor va munshig‘a hukm bo‘lsakim, musulmonlarning nishonin ortuq tama’ birla kechga qo‘ymasalar...”.

Ad.: *Алишер Навоий. Муншаот. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. – Т., 2007.*

S.R., E.O.

“PARIM BO‘LSA, UCHUB QOCHSAM ULUSTIN TO QANOTIM BOR...” – N.ning yigitlik yillarida yozilgan va Mashhaddagi madrasa o‘qishini bir nuqtaga yetkazib, Hirotga qaytgan vaqtidagi kayfiyatini yorqin aks ettirgan g‘azallaridan biri.

Parim bo‘lsa, uchub qochsam ulustin
to qanotim bor,
Qanotim kuysa uchmoqdin, yugursam
to hayotim bor.
Chiqib bu dayrdin Isog‘a nevchun hamnafas
bo‘lmay?
Bihamdillah, tajarrud birla himmatdin
qanotim bor.

Xaloyiq suhbatidin ming g‘amim bordurki,
muft o‘lg‘ay,
Agar ming jon berib bilsamki, bir g‘amdin n
ajotim bor.

Chekib ag‘yordin yuz javr-u tortib yordin
ming g‘am,
Ne o‘zga xalqdin g‘ayrat, ne o‘zumdin uyotim bor.

Kechib ko‘zdin yozay bir xatki, dahr ahlig‘a
ko‘z solmay
Bu damkim, ko‘z savodidin qora, ko‘zdin
davotim bor.

Tilar ko‘nglum qushi anqodin o‘tsam nari
yuz vodiy,
Munungdek sayr etarga Qofdin ortuq sabotim bor.
Navoiy, bilki shah ko‘ngli manga qayd o‘lmasa,
billah,
Agar, kavnayng‘a xoshok chog‘lig‘ iltifotim bor.

Ilk marotaba “B.B.” devonidan joy olgan. Hazaji musammani solim vaznida.

Bu g‘azal yozilgan davrda Hirotda temuriylardan Abu Said Mirzo hukmronlik qilar, uning adabiyot va san’at, xususan, she’riyat masalalari b-n ko‘pda ishi yo‘q edi. Hirotdan u b-n tanishish, imkoni bo‘lsa unga xizmat qilish, uzoq yillik musofirlikdan keyin shu asosda o‘zining shaxsiy hayotini izga solish, oila qurish, o‘zidagi yuksak she’riy qobiliyatni yanada rivojlantirish maqsadi b-n kelgan N.ga esa Abu Said shoir sifatida emas, balki ko‘proq taxtga da’vogarlik qilib, unga qarshi kurash olib borayotgan Husayn Boyqaroning eng yaqin odami deb qaragan. Shoh amaldorlari esa uni ta’qib eta boshlaganlar. Kutilmaganda qiyin bir ahvolga tushib qolgan shoir bundan qattiq ranjib, Hirotni yana tark etish xayolini qila boshlagan. G‘azalning matla’sidanoq shu narsa ma’lum bo‘ladiki, N. Abu Saiddan ham ko‘proq uning atrofini qurshagan, unga xushomad qilish yo‘lini tutgan o‘z hamshaharlaridan (“ulustin”) xafa bo‘lib, ularning yuzini ko‘rmaslik u-n uzoq-uzoqlarga bosh olib ketgisi keladi:

Parim bo‘lsa uchub qochsam ulustin
to qanotim bor,
Qanotim kuysa uchmoqtin, yugursam
to hayotim bor...

Xaloyiq suhbatidin ming g‘amim bordurki,
muft o‘lg‘ay
Agar yuz jon berib, bilsamki, bir g‘amdin
najotim bor.

Bu davrda N. (1464–1465) uylanish, oila qurish yoshida bo‘lgan. Bu g‘azalida shoir o‘z dushmanlari (“ag‘yor”)dangina emas, o‘ziga eng yaqin do‘stlari (“yor”)dan ham shikoyat qiladi, ular b-n ham umumiy til topa olmaganiga taassuf bildiradi, buning u-n o‘zini ham ayblaydi:

Chekib ag‘yordin yuz javr-u tortib yordin
ming g‘am,
Ne o‘zga xalqdin g‘ayrat, ne o‘zumdin
uyotim bor.

Shunday ekan, shoir bu ahvoldan qutulishning birdan-bir yo‘li ko‘z ko‘rmas, quloq eshitmas joylarga ketish degan fikrni qat’iy ko‘ngliga tuyadi. Buning u-n shoir o‘zining afsonaviy Anur qushidan ham ortiq ucha olishini, Anqo qushi yashaydigan Qof tog‘icha sabr-toqat va chidamga ega ekanini ta’kidlaydi:

Tilar ko‘nglum qushi Anqodin o‘tsa
nori yuz vodiy,
Munungdek sayr etarga Qofdin ortiq sabotim bor.

N.ning bunday umidsizlik kayfiyatiga tushishining bosh sababi zamon podshosining unga zarracha bo‘lsa ham e’tibor qilmagani bo‘lib (“shah ko‘ngli manga qayd o‘lmasa...”), g‘azal matla’sida shoir bunday vaziyatda ko‘nglini bir yerga qo‘ya olmasligiga, yaxshi ijod eta olmasligiga ishora qiladi:

Navoiy, bilki shah ko‘ngli manga qayd
o‘lmasa, billah,
Agar kavnayng‘a xoshok chog‘lig‘
iltifotim bor.

Ko‘rinadiki, N.ning yoshlik ehtirosi b-n sug‘orilgan bu g‘azal avtobiografik mazmunga ega bo‘lib, shoirning ma’lum bir davrdagi kayfiyatini haqqoniy ifodalab bergan. Bu g‘azalni N. ning yigitlik davrida yozgan eng yaxshi, realistik she’rlari qatoriga qo‘shish mumkin. Bu g‘azalga M.Shayxzoda ham “Navoiyning lirik qahramoni” degan ilmiy tadqiqotida yuksak baho bergan. N.ning “Vafo ahlig‘a davrondin yetar javru jafo asru...” deb boshlangan g‘azali ham shu davrda yaratilgan bo‘lib, shu jihatdan uning mazkur g‘azaliga hamohangdir.

Ad.: *Шайхзода М. Асарлар. 6 жилдлик, 4-жилд. – Т., 1972; Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. – Т., 1961.*

Ab.H.

PARIXON (f.) – duolari b-n parilarni band qiladigan kishi, duoxon, azayimxon; sohir, afsungar, jodugar. N. ijodida ham shunday mazmunlarda qo‘llanadi. M-n:

Kelturung daf’i jununumg‘a parixon, yo‘q tabib –
Kim, ul ansabdur pari har kimni shaydo aylasa.

Maz.: Mening telbalik dardidan xalos qilishi uchun tabibni emas parixonni keltiring, chunki pari es-hushini olib qo‘ygan kishiga shu ish munosibdir.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик, 2-жилд. – Т., 1984; Ғиёс ул-луғот. 1-жилд. – Душанбе., 1987.*

M.A.

PAHLAVON ABUSAID RUMIY (XV asr) – hofiz, musiqashunos, bastakor, asli Rumdan. P.A.R. ilmi bade’, falsafa va riyoziyotni puxta bilgan. Badiiy san’atlar va musiqa nazariyasiga oid risolalar yozgan. Hirotga kelib, Darvesh Shodiy b-n hamkorlik qilgan. “Amali Rost”, “Rost”, “Panjgoh” shu’basida tasniflari bor.

P.A.R. 40 dan ortiq sozanda va xonandalarni tarbiyat qilgan, go‘shtingirlikda yuksak mahorati bo‘lgan. N. uni Pahlavon Muhammad (q.)ning tog‘asi sifatida “H.P.M.” asarida tilga oladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳолоти Паҳлавон Муҳаммад. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

S.G‘.

PAHLAVON KOTIB – N. davrining taniqli mohir xattotlaridan. Abdurahmon Jomiy asarlarini ko‘chirish b-n shug‘ullangan. Ta’bi nazmga ham moyil bo‘lib, jumladan, quyidagi matla’ uning qalamiga mansub:

Iyd ast-u maro bemahi xud xurrami nest,
Xalqe hama dar shodi-yu chun man g‘ami nest.

Tarj.: Hayit kelsa-da, yonimda oy (yuzli go‘zal)im bo‘lmagani u-n men sira xursand emasman. Butun xalq shod-u xurram – ular orasida menday g‘amgin yo‘q.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

E.O.

PAHLAVON MAHMUD (PURYORVALIY XIVAQIY) (taxminan mil. 1250 – vafoti 722 / mil. 1322). Kurashchi, pahlavon, shoir, javonmardlik tariqatining yirik namoyandasi, Shayx valiytarosh Najmiddin Kubroning ma’naviy shogirdi. Po‘stindo‘zlik, telpakdo‘zlik b-n shug‘ullangan. Hindiston va Eronda polvonlikda dong taratgan. P.M.ning otasi Piryorvaliy, o‘zi esa Puryorvaliy laqablari b-n mashhur bo‘lgan. Otasining Piryorvaliy, deb nomlanishiga Shayx Najmiddin Kubrodan irshod olib ketish payti “piring yor bo‘lsin”, ma’nosidagi alqov sabab bo‘lgan.

P.M. haqidagi ma’lumotni, dastlab, Jomiy “Nafahot ul-uns min hazarot ul-quds” asarida Shayx Sayfiddinning ustozi Zahiriddin Xilvatiy bobida zikr qilib o‘tadi. N. P.M. haqida “N.M.” tazkirasida shunday ma’lumot beradi: “Xevaqdindur va laqabi mashhur Puryorg‘a, ba’zi Pakkayor debdurlar, ammo Xevaliq kishidin tahqiq va tashih qilildi, Pakkayorg‘a qaror topti, ya’ni barchag‘a Pakkayor. Yor qassobning o‘g‘lidur. Kurashchilikda saromad bo‘lub, azim shuhrat tutubdur. Yashurun suluk va riyozati ham bor ermish, andoqki, fayz olamidin ko‘nglig‘a choshni etgan ermish. Tab’i ham xo‘b ermish. Va nazm aytur ermish”. P.M. Hindistonda kurash tushib, bir polvonga atayin yiqilib bergan”, basirat ko‘zi ochilgan va podshoning nazariga tushgan. N. uning ikkita forscha ruboiysini ham keltirib o‘tadi.

O‘zining vasiyatiga ko‘ra, shogirdlari P.M. ni o‘zining po‘stindo‘zlik do‘koni doirasiga dafn etganlar. Keyinchalik uning qabri ustiga maqbara tiklanib, avliyo poyiga Qo‘ng‘irot urug‘idan bo‘lgan Xiva xonlari ko‘milgan. Bu maqbara nodir me’morchilik yodgorligi sifatida, mana, necha asrdirki, barchaning diqqatini o‘ziga tortib kelmoqda. Maqbara devorlariga, peshtoqlariga orif shoir ruboiylari darj etilgan. Deyarli barcha manbalarda uning “Kanz ul-haqoyiq” nomli masnaviysi borligi aytiladi va undan parchalar keltiriladi. Lekin T.Jalolovning ma’lumot berishicha, eronlik olim Sayyid Muhammad Ali Safir 1967-y.da uni Mahmud Shabustariyga nisbat berib nashr ettirgan. P.M. din nazariyasi, fiqh, falsafa va mantiqqa oid bir necha risolalar yozgan bo‘lsa-da, ular hozirgacha topilgan emas.

Kamoliddin Husayn Fanoiy “Majolis-ul-ushshoq” asarida (hijriy 908 (mil. 1503-y.da yozib tugallangan) keltirilishicha, P.M. Hindistonda beva ayolning o‘g‘lidan ataylab yengilishi natijasida, o‘z nafsini yenggan avliyo sifatida fano maqomining ulug‘ darajasiga yetgan va Puryor laqabiga ega bo‘lgan. Xorazmda yozilgan “Manqabati Hazrat Pahlavon Mahmud alayhir-rohma var-rizvon” asarida ota va o‘g‘il valiylarning sha’nida shunday deyilgan:

Qutbi falak, murshidi ahli jahon,
Ot anga Mahmud-u laqab Pahlavon.

Kashf-u karomat anga haddin fuzun,
Oliy maqomoti adaddin fuzun.

Bor edi Piryorvaliy volidi,
Xivaq aro marqadi ham mavludi.
Ibn-u padar Xivaq ahli yoridur.
Har ne su’ubatda madadkoridur…

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳолоти Паҳлавон Муҳаммад. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т.,*

2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Исломий Ҳ. Алишер Навоий ва Хоразм авлиёлари. – Т., 1998; Абул Муҳсин Муҳаммад Боқир. Тазкираи Муҳаммад Боқир. ЎзР ФА ШИ. 1846 // 2. қўлёзма, 340 а. варақ. ЎзМЭ. 7-жилд. – Т., 2004.

E.O., S.R.

PAHLAVON MUHAMMAD (vafoti 1490, Hirot) – N. davrida yashagan kurashchi pahlavon, N.ning yaqin do‘sti. Shoir va bastakor ham bo‘lgan. O‘z davrida kurashda unga teng keladigan pahlavon bo‘lmagan. Keyinchalik u yosh kurashchilarga murrabiylik qilib, ko‘plab shogirdlar yetishtirgan. N. uni behad qadrlagan va o‘zining eng yaqin kishilaridan biri, deb hisoblagan. Ular uzoq yillar davomida do‘st bo‘lishgan, Hayotning achchiq-chuchugini birgalikda totib, bir-birlariga madadkor bo‘lishgan. P.M. “Kushtigir” taxallusi b-n she’rlar yozgan. N. “M.N.”-ning to‘rtinchi majlisini P.M. zikri b-n boshlaydi va o‘zining Astroboddan yuborgan ruboiysiga javoban P.M. bitgan bir ruboiyni keltiradi. Shuningdek, tazkirada P.M. qalamiga mansub bir matla’ ham keltirilgan va bu she’r u-n podshoh P.M.ga ming oltin in’om qilganligi qayd etilgan. P.M. benihoyat kuchli, jismoniy baquvvat bo‘lgani holda ayni paytda nihoyatda dardli, nozik qalbli, hassos inson bo‘lgan. U she’r va musiqani nihoyatda sevgan va nozik tushungan. Bundan tashqari u tabobatdan ham xabardor bo‘lgan. N. va P.M. o‘rtasidagi do‘stlik umr bo‘yi davom etgan. P.M.ning vafoti (1490) N. u-n og‘ir zarba bo‘ldi. Uning marhum do‘stiga bag‘ishlab “H.P.M.” asarini yozishi do‘stning do‘stga mehr va sadoqatining ramzi bo‘lish b-n bir qatorda, unda o‘z davrini mashhur kishisining, tengi yo‘q pahlavon, mohir bastakor va ijodkorning o‘ziga xos qiyofasi va siymosining yaratib berilgani b-n ahamiyatlidir. Bunda P.M., eng avvalo, serqirra iste’dod sohibi sifatida namoyon bo‘ladi. N.ning yozishicha, har qanday ishga kirishsa, uni o‘sha sohaning eng mohir ustalari kabi, balki ulardan ham yaxshiroq bajara olar ekan. P.M. shoir sifatida masnaviy janrida ham ijod qilgan. Bu haqdagi ma’lumot va P.M. bitgan masnaviydan parcha N. asarida keltirilgan. Bizga N. va P.M. munosabatlari haqida tassavur beruvchi va P.M.ning insoniy qiyofasi va fazilatlarini ko‘z oldimizda gavdalantiruvchi yana bir asar N.ning “S.”sidir. Mazkur asarning:

Soqiyo, pahlaviy oyin may tut,
Pahlaviy lahn ila ko‘nglumni ovut –

deb boshlanuvchi qismi P.M.ga bag‘ishlangan. Shoir o‘z do‘stini shunday ta’rif etadi:

Ul tariq ahlig‘a shoh-u sarxayl,
Bal tariqatda mute’i har xayl.

Mehrvash toram tafrid ichra,
Isaviy martaba tajrid ichra.

Quvvat ichra anga o‘n pilcha zo‘r,
Xokvashlig‘ aro yuz onchaki mo‘r.

N. “S.”da P.M.ning Ne’matobod deb ataluvchi manzilni obod qilib, xalqqa g‘amxo‘rlik qilgani, turli fanlardagi iqtidori, musiqa va she’riyat sohasidagi qobiliyati haqida so‘z yuritadi. P.M. o‘zining qirq yillik do‘sti ekanligini va uning vafotidan qanchalik g‘am chekkanini go‘zal badiiy misralarda ifodalaydi. Faqat N. emas, o‘sha davrning ko‘plab ulug‘ kishilari, shu jumladan, Husayn Boyqaro, Abdurahmon Jomiy va boshqalar ham P.M.ni benihoyat qadrlaganlar va hurmat qilganlarki, bu chindan ham uning XV asrning nodir insonlaridan biri bo‘lganligidan dalolat beradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳолоти Паҳлавон Муҳаммад. ТАТ. 10 жилдлик. 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик. 9-жилд. – Т., 2011; Зайниддин Восифий. Бадое ул-вақое. – Т., 1979.*

Q.E.

PAHLAVONQULI IBN RAHMONBERDI – Xorazm xattotlik maktabining vakili. Riqo, nasx va nasta'liq xatlarida yozgan. N. asarlaridan ko'chirgan ikkita qo'lyozmasi yetib kelgan.

1. "Xamsa". Bu qo'lyozma tarkibidagi "H.A." va "L.M." dostonlarini shu kotib ko'chirgan (qolgan uch doston boshqa kotib tomonidan ko'chirilgan).

O'zR FAShI. Qo'lyozma raqami 3018. 97 varaq. Xorazmda 1198/1784-y.da kitobat qilingan. 2. "M.Q.", "L.T." (faqat "Shayx San'on" qissasi). O'zR FAShI. Qo'lyozma raqami 1209 II-III. 45 varaq. Xorazmda 1194/1780-y.da kitobat qilingan.

Ad.: *Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. – Т., 1991; Собрание восточных рукописей академии наук Узбекистан. VII. – Т., 1964.*

Muh.A.

PENKOVSKIY Lev Minayevich (1894, Kremenchug – 1971, Moskva) – taniqli rus shoiri, mohir tarjimon. 1942–1944-yy. Toshkentda yashagan. O'rta Osiyo xalq og'zaki ijodiga mansub bo'lgan "Alpomish", "Manas", "Qizjibek" singari dostonlarni mahorat b-n rus tiliga tarjima qilgan. Mutarjim rus kitobxonlarini N. lirikasi va dostoni b-n yaqindan tanishtirish maqsadida shoirning "F.Sh." dostonini hamda "В огон зелений кипарис!...", "Брос, кипарис в огон, она стройней его!..", "Годами шейха речь текла, пресна, мутна..." (1972, стихотворение) kabi g'azallarini san'atkorlik b-n rus tiliga o'girgan. Uning tarjimalari xususida M.Shaginyan, I. Fradkin, S.Lipkinlar ijobiy fikr bildirishgan.

Ad.: *Алишер Навои. Фархад и Ширин. – М., 1972.*

B.R.

PESHDODIYLAR – Sharq tarixnavisligi an'anasiga ko'ra qadimgi Eronda hukmronlik qilgan to'rt sulolaning birinchisi. Boshqa Sharq adiblari va tarixchilari singari N. ham Ajam tarixini bayon qilar ekan, bunda ko'plab mifologik personajlarni tarixiy shaxslar sifatida zikr etadi. "T.M.A."da tilga olingan P.ning aksariyati afsonaviy shaxslardir, jumladan, sulolaning asoschisi sifatida sanalgan Kayumars ham mifik personaj. U haqdagi afsona "Avesto"da, shuningdek, Beruniy va Tabariy asarlarida keltirilgan, shuningdek, Firdavsiy "Shohnoma"sida o'z aksini topgan.

Mutafakkir shoir hisobida P. o'n bir kishi va quyidagi tartibda zikr etilgan: Kayumars, Xushang, Tahmuras, Jamshid, Shaddod va Shadid, Zahhok binni Marodis, Faridun, Manuchehr, Navdar, Afrosiyob, Zob binni Tahmosb, Girshosb.

"S.I." dostonining IX bobi P.ga bag'ishlangan. Unda sulolaning barcha vakillari va ularning qilgan ishlari qisqa-yu lo'nda bayon etilgan. Jumladan, sulolaning asoschisi Kayumars haqidagi shunday misralar uchraydi:

Alar peshvosi Kayumarsi rod,
Kim, ul qo'ydi taxti uzra oyini dod.

N. nazarida qadimgi Ajam aholisi orasida ko'p hunarlar, narsalar va yangiliklarning paydo bo'lishi, tarqalishi mana shu sulola hukmronligi davrida yuz bergan. Ulardan bir qatorini esa bevosita P. hukmdorlarga nisbat beradi. M-n, "T.M.A."da Hushang zikrida shunday yozgan: "Va temirni toshdin ul chiqardi..., yog'ochdin taxta ul kesib, uylarga eshik yasadi va aksar konlarni ul chiqardi..., otqa egar ul yasadi.... yerga farsh ul soldi, tulku va os va tiyin terisin ul kiyarg'a qobil qildi". To'qimachilikning hamda forsiy tilda kitoblarning paydo bo'lishini esa N. mana shu sulolaning uchinchi vakili Tahmuras b-n bog'lagan: "Va forsiy kitob bitmak va bo'z to'qumoqni ul ixtiro' qildi". "S.I."da esa u Tahmurasning shaharlar bunyod etganini she'riy misralarda qayd etgan:

Chu ul bordi, Tahmuras o'ldi padid,
Anga bog'ladi olam ahli umid.

Base shahr olamda qildi bino,
Nishopur-u Marv-u Sipohon yano.

Bundan tashqari, N. Eron mifologiyasida, “Shohnoma” va qadimgi tarixiy yodgorliklarda o‘z aksini topgan bir qator afsonalarni ham P. davriga oid voqealar sifatida zikr etganligini ko‘rish mumkin.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Фирдавсий А. Шоҳнома: сайланма (нашрга тайёрлончи ва насрий баёни таржимони Ҳ.Ҳомидий). – Т., 2012.*

H.H., Q.E., B.R.

PINDOR (f.) 1. Mag‘rurlik, kibr, o‘zini baland tutish, takabburlik; 2. O‘ylash, fikrlash, gumon qilish. N. asarlarida doimo xoksorlik, kamtarlik maqtalib, takabburlik, manmanlik qoralangan. N. quyidagi bayti orqali ham shaytonsifat takabbur emas, tuproqsifat kamtar bo‘lishni targ‘ib qiladi:

Ey Navoiy, o‘zni maqbul istasang tufroq bo‘l,
Kim, erur mardud ulkim, boshida pindori bor.

Baytda talmeh va tazod san’ati qo‘llanib, Odam (a.s.) va Shayton qissasiga ishora qilingan. N. o‘ziga tanbeh berib aytadiki: “Haq dargohida maqbul bo‘lmoq istasang, tufroq kabi xokisor bo‘l. Chunki, kimning boshida kibr-u g‘ururi bo‘lsa, u mardud, ya’ni Shayton kabi Yaratuvchining dargohidan quvilgandir”. Shoirning o‘ziga qilgan bu asosli xitobi aslida barchaga tegishlidir. Zotan, baytdan maqsad kibrni mazammat qilish va odamlarni xokisorlikka undashdir. Chunki kibr inson qalbidagi tuzalishi qiyin bo‘lgan xastalikdir. Shuning u-n ham barcha din va ta’limotlarda kekkaygan kimsalar tanqidga uchragan.

Qur’oni Karimning bir qator oyatlarida mutakabbirlar la’natlangan va joylari jahannam ekani xabari berilgan. Jumladan, “Zumar” surasining 60-oyatida: “Axir, jahannam kibr qiluvchilarning joyi emasmi? (Albatta, o‘shalarning joyidir)”, deb aytilgan.

Hadisi shariflarning birida “qalbida xandal urug‘icha kibri bor inson”ning jannatga kirmasligi qat’iy ta’kidlangan.

N. “N.M.”da shayx Yusuf bin Husayn Roziyning: “Barcha yaxshiliklar uyning ichkarisida, uning kaliti tavozedir. Barcha yomonliklar ham uyning ichkarisida. Uning kaliti takabburlikdir”, degan hikmatini keltiradi.

Shuningdek, u “M.Q.” asarida “mutakabbir – mal’un”, – deydi. Bularning aksi bo‘lgan tavoze va xokisorlikni targ‘ib qiladi.

N. bir baytida: “maqsad yuzini “Pardayi pindor” – takabburlik pardasi yopti, ey ishq, vujudimga fano o‘tini sol”, – deydi va fano o‘tining takabburlik pardasini yoqib, yo‘q qilishidan umid qiladi.

Solg‘il, ey ishq, vujudumg‘a fano o‘tinikim,
Yopti maqsud yuzin pardayi pindor manga.

Matlub yuzini jilva qilishidan, faqat takabburlik pardasi man qilar ekan shoir shayxga may ichishni (ilohiy ishqdan nasibador bo‘lishni) tavsiya qiladi.

May ich, ey shayxki, matlub yuzi jilvasidin,
Qilmadi man’ bajuz pardayi pindor sanga.

N. kibr va P. kabi so‘zlar mohiyatidan bahs yuritib, ularning zararlari va qutulish choralarini ko‘rsatib beradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик, 3-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб, ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик, 2-жилд – Т., 1983; Ҳаққул И. Тасаввуф ва шеърият. – Т., 1991; Ахатова М. Ўзбек тилида тасаввуф ва шеърият муносабатларининг белги-ишора ва моддий унсурлар номлари воситасида*

ёритилиши // Фан ва таълим (електрон журнал), 2022-йил, 2-февраль.

S.R.

PIR (f.) – 1. Qari kishi, keksa odam. 2. Tariqat shayxi, murshid. Irshod qiluvchi. Bahouddin Naqshbandning mashhur gapi bor: “Murshid (pir) bu – hoziq tabib, muridning holiga muvofiq bo‘lgan da’voni qiladi”. N. asarlarida pirning har ikkala ma’nosi keng qo‘llangan. Tariqat shayxi sifatida “N.M.” asarida keltiriladi: “... aning Muhammad Hasan otlig‘ bir muridi bor erdi. Har ne dunyolig‘i bor erdi, pirig‘a sochti”. “..Aning piri Shayx Isrofil erdi”.

P. – qari, keksa ma’nosida keladi. Odatda keksalar yoshlar davrasiga kelganda, o‘rindan turib, hurmat b-n kutib olinadi. Lekin yosh bolalarning o‘rnidan turishini keksalar odob hisoblashmaydi.

Tifl uchun qo‘pmoq emastur adab.
Pirlar ul ishni demastur adab.

N. piri dayr, piri xammor, aql piri, chang piri, piri xarobot va piri mug‘on kabi iboralar orqali ham o‘ziga xos ma’no qatlamlarini kashf etadi. Bu iboralardan, avvalo, haqiqiy murshid bo‘lgan Muhammad (s.a.v.), ikkinchidan, ilohiy ishq ulashadigan murshidlar nazarda tutiladi. N. yozadiki, shayx riyokorlarni, dayr piri rindlarni, tariqat pirlari esa fano ahlini irshod qilishi, to‘g‘ri yo‘lga boshlashi kerak:

Shayx ila ahli riyovu dayr piri birla rind,
Kim fano ichra keraktur pirning irshodi ko‘p.

N.ning lirik qahramoni bodani (ilohiy ishqni) kutib, intizorlik va sog‘inchdan ko‘zlari oqaradi, jiddiy xiralashadi. Shunda u dayr piri (mayxonadagi murshid)dan may shishasidan oyna yasab berishini talab qiladi:

Boda hajridin oqarmish ko‘zlarim, ey piri dayr,
Aylagil may shishasidin sindurub aynak manga.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик, 3-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик, 2-жилд – Т., 1983.*

S.R., Z.R.

PIR AHMAD IBN ISKANDAR – Hirot xattotlik maktabining davomchilaridan. Nasta’liq xatini yaxshi yozgan. 1533 (940)-y.da N.ning terma devonini xafiy (nafis) nasta’liq xatida ko‘chirgan. O‘zR FAShI. inv. № 9672. 543 varaq.

Ad.: *Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. – Т., 1991; Собрание восточных рукописей академии наук Узбекистан. VII. – Т., 1964.*

Muh.A.

PIRI DAYR (f.-ar.) – 1. Mayxonachi, mayxona boshlig‘i. 2. Majoziy: xonaqoh piri, tariqat murshidi. 3. Tasavvufda komil pirlar va umuman, shayxlar ko‘zda tutiladi. Shuning u-n ham N.:

Bo‘lay dayr pirig‘a andoq murid,
Ki, yod etmayin shayx ul-islomdin, –

deb yozadi bir tarje’bandida. To men dayr piriga sodiq ekanman, falakdan menga jafo yetmaydi, bu dunyo g‘am-u tashvishlari meni chetlab o‘tadi, deydi uning boshqa bir baytida:

Chu men dayr piri vafosidamen,
Falakdin yetishmas jafoye manga.

Ma’naviy rahnamoni ko‘ngil istashidan maqsad undan yetadigan ma’rifiy huzurdir – quyidagi baytda aynan Haq ma’rifatiga tashna ko‘ngilning orzulari o‘z ifodasini topgan:

Fano dayrin ko‘ngul istarki, bir-bir piri dayr elga
Tutarda boda, shoyad, jur’aye sungay bizing sori.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ғазаллар, шарҳлар // Тўплаб нашрга тайёрловчилар: А.Шаронов, Б.Эшпўлатов. – Т., 1991; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва таъбироти ирфоний. – Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.); Комилов Н. Хизр чашмаси. — Т., 2005; Асадов М. Соқийнома: тарих ва поэтика. – Т., 2020.*

M.A.

PIRI MUG‘ON (f.) – 1. Mug‘lar piri; zardushtiylar rahnamosi, otashparastlar qavmi sardori. 2. Majoziy: mayxona boshlig‘i, mayfurush. 3. Tasavvufda ruhoniy rahbar, yetuk murshid, komil inson. Muhammad (s.a.v.) va piri komilning sifatlari ham ko‘zda tutiladi. Muhammad (s.a.v.) va yetuk murshidga ham ishora qilinadi. Sharq mumtoz adabiyotidagi timsollardan biri. Majoziy ma’noda u xonaqoh boshlig‘i va soliklar rahnamosi ma’nosida qo‘llanadi. Shariat va tariqat ilmlarini mukammal o‘zlashtirgan komil pir bo‘lib, so‘fiylarni riyozat yo‘lini bosib o‘tishlariga rahbarlik qiladi. Bu istilohdan N. ham foydalangan. M-n, “Xarobot aro kirdim...” nomli tarje’bandida xuddi qarmoq baliqni tutgandek, may ishqida mug‘lar piri jazbasi ham meni o‘ziga tortdi, deydi:

May olmoqqa piri mug‘on jazbasi
Meni chekti andoqki, mohini shast.

P.M.dan maqsad rahbar, peshvo, tariqat piri.

Piri mug‘on, ki gardun umrash kunad afzun,
Dorad hamesha mamnun rindoni benavoro.

Tarj.: Bechora rind ahlini hamisha mamnun qiladigan piri mug‘onning umrini taqdir uzun qilsin.

Binobarin, Ahmad Yassaviyning o‘z hikmatlarida Muhammad (s.a.v.)ga piri mug‘on sifatini berishi bejiz emas:

Piri mug‘on haq Mustafo beshak biling,
Qayda borsang, vasfin aytib, ta’zim qiling.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Девони Фоний. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. Nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi va izohlar mualifi I.Haqqulov. – T., 1991; Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. Nashrga tayyorlovchi R.Abdushukurov. – T., 1992; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва таъбироти ирфоний. – Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.); Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 2. – Душанбе, 1989; Комилов Н. Тасаввуф. – Т., 2009; Асадов М. Соқийнома: тарих ва поэтика. – Т., 2020.*

M.A., E.O.

PIRI SESADSOLA (XV asr) – N.ning keltirishicha, Darvesh Husaynning nabirasi, Mavlono Muhammad Chohuning o‘g‘li. Tariqatni tabobat b-n omuxta qilgan. Go‘yo dard riyozatini chekkan soliklarga “Mutu qabla an-tamutu” – “O‘limdan burun o‘ling” hadisini irshod qilar emish. I.Haqqulning yozishicha: “Haq oshiqlari u-n ushbu hadis axloqiy bir dastur va amaliy hayot nizomiga aylangan” bo‘lib, bu b-n u “nafsni yengishni, ya’ni soliklarga ruhoniy hayot va zavq-u shavq ila yashash sirlarini ko‘rsatgan”. Imom Rabboniy ta’biriga ko‘ra, bu so‘fiylik avvalida hosil bo‘ladigan kamol darajasi bo‘lib, fano holi valoyat martabalariga sari tashlanadigan ilk qadamdir.

Ko‘rsatma sira o‘zgaga husningni sanam,
Jonimni olar tandan rashk o‘ti shu dam.
Men xalq ko‘zining qorachig‘i bo‘lsa edim,
To ko‘rmasa mendan o‘zga husning sira ham.

(E.Ochilov tarj.)

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ҳаққул И. Тасаввуф сабоқлари. – Бухоро, 2000; Комилов*

Н. Тасаввуф. – Т., 2009; Донишмандлар туҳфаси. – Т., 2009.

E.O.

PIRI XAROBOT – 1. Mayxona piri, mayfurush. 2. Tasavvufda: tariqat piri, ma'naviy rahnamo, xonaqoh murshidi. Tasavvuf adabiyotida komil insonlar va yetuk pirlarga nisbatan qo'llanadi.

Xarobot piri chu bir jom uchun
Meni mundoq oshuftahol ayladi, –

deb yozadi shuning u-n N. o'zining "Xarobot aro kirdim..." nomli mashhur tarje'bandida.

Yoki Haq mohiyatini tariqat piridan ista, shayxning va'zi-yu pandi quruq makr-u afsonadir, deydi:

Asrori vahdat ista xarobot piridin
Kim, shayx va'z-u pandi fusun-u fasonadur.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2011; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва таъбироти ирфоний. – Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.); Асадов М. Соқийнома: тарих ва поэтика. – Т., 2020.*

M.A.

POJAND / POZAND – Zand tafsiri. VIII–IX asrlarda pahlaviy tilini o'qish va tushunish qiyinligi tufayli yangi fors tilida amalga oshirilgan tafsir. P. aslida olovni kovlaydigan va oladigan temir qurol. Shu ma'nodan kelib chiqib, zardushtiylikning otashparastlik dini qoidalari bayon qilingan muqaddas kitobi "Jand" ("Zand")ga pahlaviy tilida yozilgan tafsirni shu nom b-n ataganlar. Ba'zilar, aksincha, "Jand" ("Zand" shaklida ham uchraydi) "Pojand"ning tafsiri deydilar. Ba'zilar esa aslida "Jand" ham, "Pojand" ham Zardusht ta'limotini o'z ichiga olgan kitobning tafsirlaridir, degan fikrni ilgari suradilar. Yana "Pojand" "Jand" kitobining tarjimasidir degan qarashlar ham mavjud.

Yo'q bo'ldi kalomingdin asfori samo barcha,
Asfori samoviydin bo'lg'an kebi yo'q pojand.

Maz.: Sen keltirgan kitob – Qur'on tufayli (Bu na't g'azal bo'lib, Muhammad (s.a.v.) ta'rifiga bag'ishlangan – E.O.) qolgan barcha samoviy kitoblar yo'qqa chiqdi. "Pojand" ham nozil qilinmaganga o'xshab qoldi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. 1-жилд. – Душанбе, 1987; Бурҳони қотеъ. 1-жилд. – Душанбе, 1993; Очилов Э. Бир ҳовуч дур. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 2. – Душанбе, 1989.*

E.O.

Q.: – ZAND

POKBOZ – 1. Pok oshiq, halol, g'arazsiz oshiq, haqiqiy oshiq. 2. Halol qimor o'ynaydigan kishi. 3. Tasavvufda o'z borligini mahv etuvchi, ishq yo'lida hamma narsadan kechuvchi solik. Pokbozlikning o'ziga yarasha shartlari bor. Shulardan birini N. "D.F."da aytib o'tadi:

Pokbozi agar az Ezidi pokat havas ast,
Chashm bar orazi pok az nazari pok andoz.

Tarj.: Agar Pok Allohga havas (e'tiqod) qilgan pokiza odam bo'lsang, pokiza yuzga, pokiza ko'z b-n nazar sol).

Oshiqlik yo'lida qimorbozlardek qalb va jonini tikkan odam ham pokboz deyiladi:

Ey Navoiy, qalb-u jon naqdin magar pok o'ynading,
Ul muqomir shevag'akim, bo'ldi oting pokboz.

Bir kun alar (Mavlono Jaloluddin Muhammad Balxiy Rumiy q.s.) majlisida Shayx Avhaduddin Kirmoniy so'zi o'tadur erdi. Birov dediki, shohidboz edi, ammo pokboz edi. Alar dedilarki, kosh har ne tilasa qilsa erdi va o'tsa erdi".

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Девони Фоний. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик, 2-жилд. – Т., 1983.*

S.R.

“POKDOMAN ZUAFODIN NEKI ZOYANDA BO‘LUR...” – N.ning “B.V.” devoniga kiritilgan qit’a:

Pokdoman zuafodin neki zoyanda bo‘lur,
Ruhparvardur-u jonbaxsh zihi xilqati pok.
Ko‘rki, Maryamg‘a o‘g‘ul Isoyi ruhulloh erur,
Ursa bu holg‘a nopok ulus ta’n ne bok.

O‘zbek xalqi tarixining hamma davrlarida ma’rifatli ota-bobolarimizning ayolga munosabati juda yuksak bo‘lgan. Bu fikrning yorqin isboti klassik she’riyatimizdir. Ayol ulug‘langan she’rning nafasi g‘oyatda sehrli va o‘z-o‘zicha umidbaxsh. Ayol tahqirlangan she’rdan ko‘ra qabohatli ish yo‘q. Bizning qaysi bir klassik ijodkorimiz ayol sha’niga yomon so‘z bitgan? Hech qaysisi. Ayol nafosati, ayol pokligiga sig‘inishda Sharq shoiri b-n musobaqalashish oson bo‘lmagan. Mana, hazrat N.ning birgina shu qit’asini olaylik. Unda pokdomon ayol ta’rifini o‘qiymiz. N. ayol pokizaligini avlod istiqbolining asosiy sharti sifatida talqin etgan. Toza xulqli ayoldan farzand tug‘ilsa, u – ruhparvar, jonbaxsh va xulqi, tabiati ozoda bo‘ladi, deydi N. va Maryam hamda uning o‘g‘li Iso (a.s.) qismatini eslatadi. Afsonalar Bibi Maryamning odob va axloqda tengsiz bo‘lganligini naql etadi. U erkak zotiga yaqinlashmasdan homilador bo‘lgan emish. Shuning u-n undan tug‘ilgan o‘g‘ilning nafasi o‘likni ham tiriltiruvchi bo‘lgan ekan. Ruhulloh – Iso (a.s.)ning laqabi, uning ilohiy Ruhga mansubligiga ham ishoratdir. Qit’a so‘ngida bu holga nopok vujud ila yetishib bo‘lmasligini qayd qilganlar. “O‘zi pok-u, ko‘zi pok-u so‘zi pok” ayol qiyofasida N. yolg‘iz oilaning emas, millatning ravnaqini ham nazarda tutgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик, 3-жилд. – Т., 2011; Ҳаққул И. Касби камол ўзни танишдир. – Т., 2021.*

I.H.

“POKLAR JONI BO‘LUR OZURDA...” – N.ning “G‘.S.” devonidan o‘rin olgan qit’a:

Poklar joni bo‘lur ozurda tazvir ashkidin,
Ko‘zgu ruxsori nechukkim, zang tutqay nam bila.
Rostlar ko‘nglini aylar tiyra nodon yovadin,
Shamni ul nav’kim, johil o‘churg‘ay dam bila.

Poklik – zehn va idrok tiniqligi. Ma’naviy poklik – axloq ziyosi. U – hissiyot o‘tkirligi, ko‘ngilning har turli g‘uborlardan tozalanishi. Pokiza yurakka ruh shaffofligi, anglash tuyg‘ulari ham g‘oyatda yuksak bo‘ladi. Uning o‘ziga xos ma’yusligi, sezgirligi bor. Qit’aning birinchi satrida “poklar joni”ning hiyla yoki firib ko‘z-yoshlaridan ozor chekishi so‘zlangan. Shoir bu ozurdalikni nam tufayli “ko‘zguruhsori”ning zanglashiga nisbat beradi. Aytaylik, biror nodonning poyma-poy aljirashlari to‘nka tabiatli ikkinchi bir gumrohga yomon ta’sir ko‘rsatmas. Ammo bunday vaysaqilik “rostlar ko‘nglini” tiyra aylay oladi. Bu esa johilning “dam bila” shamni o‘chirishiga o‘xshaydi. Nodonning nafasi ham sovuq, dil yorug‘ligiga ziyon yetkazuvchidir.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Ҳаққул И. Касби камол ўзни танишдир. – Т., 2021.*

I.H.

PORSO (f.) – Saqlanuvchi, yomon ishlardan o‘zini saqlovchi, xudojo‘y. P.lik – parhezkorlik, yomon ish, yomon yo‘llardan saqlanuvchilik, taqvodorlik. N. o‘zini gunohlardan tiyadigan porso yigitlarni shukr qilishga chaqiradi. Chunki ularni Xudoning o‘zi gunohlardan saqlovchidir.

Xudoy uchun qiling, ey porso yigitlar, shukr,
Ki sizga jurm-u gunahdin Xudo nigahbondur.

N. P.likni yoqlagan va targ‘ib qilgan holda, ayrim vaziyatlarda tasavvufiy ma’no anglatadigan ma’shuqni, mayni, mayxona haramini porsolikdan afzal biladi.

Ayoqchi mahvash-u may dilkash-u ahli
tarab sarxush,
Qadah keturki, qilmoq porsoliq yo‘qtur imkonim.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик, 2-жилд. – Т., 1983.*

S.R.

PORSO ABUNASR – (875–1470, Balx). To‘liq ismi Xoja Hofiziddin Abunasr ibn Muhammad ibn Mahmud Hofiziy Buxoriy – mashhur shayxlardan. Xoja Muhammad Porsoning farzandi. Abdurahmon Jomiy b-n suhbatdosh bo‘lgan.

N. “N.M.” asarining kirish qismida saxiylik haqida so‘z yuritar ekan, P.A. to‘g‘risidagi bu naqlni keltiradi: Abunasrning juda yaxshi bir oti bor ekan. Bir kecha ikki o‘g‘ri otni o‘g‘irlab ketibdi. Bundan xabar topgan murid va mulozimlar iztirob b-n voqeani P.A.ga bildiribdilar. P.A.: “Bir oz minar erduk, elitgan kishiga bizdan darboyistroq (zarurroq) erkandur”, – deb javob beribdi. Otga juda ishtiyoqmand bo‘lgan hokim, yo‘llarga odam qo‘ydirib, o‘g‘rilarni tuttiribdi va o‘z navkari b-n ularni P.A. yoniga yuboribdi. P.A. navkar va o‘g‘rilarni o‘rnidan turib, ta’zim b-n kutib olibdi, o‘g‘rilarning bog‘liq qo‘llarini yechdiribdi va ularning ko‘histonlik ekanliklarini, u yerga yo‘l olganliklarini, yayovligidan xabar topgach, ot sizlarga zarur, deb ularni ozod qilib yuborgan.

N. “L.T.” dostonida ham P.A.ning xalqparvarligi xususida ma’lumot keltiradi. “M.N.” tazkirasida esa Sayyid Kamol Kachkul borasida so‘zlab, uning P.A. vafoti munosabati b-n marsiya yozganligi va ta’rix bitganligi haqida xabar beradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

S.O‘.

“POETIK NUTQ: STRUKTURA VA SEMANTIKA” – tilshunos Mardon Rahmatovning N. g‘azallaridagi jumla qurilishi va semantik tahliliga bag‘ishlangan fan doktorligi tadqiqoti doirasida tayyorlagan monografiyasi. Tadqiqot u-n “G‘.S.” devoni asos qilib olingan. Poetik nutq strukturasi, lirik asarlar matnida metrika, ritm va intonatsiyaning hosil qilinishi, ritm ta’sirida bayt-misra tarkibining shakllanishi, fonetik birliklarning ekspressiv vazifasi, g‘azal matnida adresatlarning ifodalanishi, ularning semantikasi, muloqotni ta’minlovchi xususiyatlari tahlil qilingan. “Poetik nutqning tashkil etilishi: dialogizatsiya va adresatsiya” nomli ilk bobida g‘azalda ohangni ta’minlovchi unsurlar maxsus fasllarda yoritilgan. “Alisher Navoiy lirikasida nutq subyekti va adresat” nomli bobda nutq subyekti, adresat, shoir taxallusining nutq egasiga munosabati masalalari misollar asosida dalillangan. Undalmalar, buyruq shakllarining ohangga ta’siri kabi xususiyatlar lirik asarning jumla qurilishini o‘rganishga qaratilgani b-n ahamiyatli.

Ad.: *Rahmatov M. Poetik nutq: struktura va semantika. – T., 2023.*

O.T.

PULI INJIL – Hirot shahri shimolidan oquvchi Injil arig‘i ustidagi ko‘prik va o‘sha joydagi mavze.

PULI MOLON – Hirot shahridan janub tomonga bir farsah masofada Hermrud daryosi ustiga qurilgan ko‘prik.

PULI CHIROG‘ JANGI (1497) – Sulton Husayn Mirzo b-n o‘g‘li Badiuzzamon Mirzo

o‘rtasidagi jang. Balx viloyatining etagida Gurzivon tog‘idagi Puli Chirog‘ degan darada 1497-y. 2-aprel kuni bo‘lib o‘tgan. N. bu urushning oldini olishga harakat qilgan. Balxga Badiuzzamon huzuriga shaxsan o‘zi borib, uni otasi b-n yarashishga ko‘ndirgan. Lekin vazir Nizomulmulk va Xadichabegimlarning fitnalari tufayli yarash bitimi tuzilmagan va Husayn Boyqaro Balxga qo‘shin tortgan. U katta qo‘shin b-n Maymana orqali kelib Puli Chirog‘ darasining og‘zini egallagan. U tarafdan Badiuzzamon mirzo Balxda Shayx Ali Tag‘oyini noib qilib qoldirib, o‘zi lashkari b-n Puli Chirog‘ darasi tomon yurgan va 1-aprel kuni yetib kelib, tunni o‘sha yerda o‘tkazib, janga tayyorgarlik ko‘rgan. Ertasi kuni jang boshlanadi. Birinchi bo‘lib Husayn Boyqaro qo‘shini hujum qiladi. Bir nechta shahzodalar boshchiligidagi qismlar lashkarning oldida yurib urushga kiradi. Ularning orqasidan Husayn Boyqoroning o‘zi boshliq asosiy qism ham yetib keladi. Badiuzzamon mirzo avval chekinadi va so‘ngra esa qochishga majbur bo‘ladi. Badiuzzamon bir guruh kishilari b-n qochib, nihoyatda baland bir qoyaga borib qolgan. U yerdan tushadigan yo‘l yo‘q edi. Orqadan esa Sulton Husaynning buyrug‘i b-n Abulmuhsin mirzo Badiuzzamonni quvib kelayotgan edi. Badiuzzamon salla va belbog‘larini bir-biriga bog‘lab qoyadan tushib olishga muvaffaq bo‘lgan. Uning odamlari ham pastga tushib, dushman qo‘liga tushmay Qunduz viloyatiga jo‘nab ketadilar. Qunduz hokimi Xusravshoh Badiuzzamonni yaxshi kutib olgan. Shahzoda u yerda bir muncha vaqt turadi, keyin esa, Qandaxorga Zunnun arg‘un huzuriga borgan.

Sulton Husayn Boyqaro g‘alabadan so‘ng Balx shahriga kelgan. Badiuzzamonning noibi Shayx Ali Tag‘oyi shaharni topshirishga majbur bo‘lgan. Sulton Husayn mirzo Balxga o‘g‘li Ibrohim mirzoni hokim qilib tayinlagan va o‘zi Hirotga qaytgan.

Ad.: *Хондамир. Ҳабиб ус-сияр. – Т., 2011; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 2002; Навоий замондошлари ҳотирасида. – Т., 1985.*

Q.E.

PULI XOTUN – Mashhaddan Hirotga boruvchi yo‘lda joylashgan manzil. Sulton Husayn Bayqaro va N. hayotlarida ushbu manzil b-n bog‘liq sahifa ham bor. Sulton Husaynning siyosiy raqibi Yodgor Muhammad mirzo oqquyunli turkmanlar madadi b-n Astrobodni olib, Xurosonga yurish qilgan vaqtda Sulton Husayn qo‘shini b-n Jojirm degan joyda bo‘lgan. Uning lashkarboshilarining ko‘pchiligi sotqinlik qilib Yodgor mirzo tomonga o‘tib keta boshlaganlaridan so‘ng chekinishga majbur bo‘lgan va Mashhadga, u yerdan P.X.ga kelgan. N. ham u b-n birga edi. O‘sha vaqtda P.X. benihoyat xarob holda bo‘lgan. Bu haqida tarixchi Mirxond shunday yozadi: “So‘ngra u yerdan ham (Mashhaddan – Q.E.) ko‘chib, benavo bir manzil bo‘lgan Puli Xotun tarafga qarab yurdi”. Husayn Bayqaro va N. P.X.da turgan chog‘larida yana bir ko‘ngilsiz hodisa yuz beradi. Poytaxt Hirotda isyon ko‘tarilgani haqida xabar keladi. Sulton N.ga Hirotga borib isyon sabablarini aniqlashni buyuradi. Shoir Hirotga kelib bu yerda bo‘lib o‘tgan voqealarni o‘rganib, poytaxt aholisiga zulm o‘tkazgan va isyon ko‘tarilishiga sabab bo‘lgan amaldorlarni aniqlaydi va ularni hibsga oladi. N. xalqni tinchlantiradi va yana P.X.ga qaytib poytaxtdagi ahvoldan shohni voqif etadi. Shundan so‘ng ular P.X.ni tark etib, Neratu qal’asiga, u yerdan esa Hirot tomonga yuradilar hamda 1470-y. 11-iyunda shaharga kirib keladilar. P.X. va T.X. singari joy nomlarining paydo bo‘lishi o‘tmishda yashab o‘tgan turkiy malikalarning hayoti va faoliyati b-n bog‘liqdir, zero xotun so‘zi o‘sha davrlarda turkiy malikalarning unvoni sifatida qo‘llangan.

Ad.: *Гиёсиддин Хондамир. Ҳабиб ус-сияр. – Т., 2013; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985.*

Q.E.

Q

QABAQ / QABOQ – yoy b-n mashq qilish u-n uzun xodaning uchiga o‘rnatilgan qovoq – nishon. Qadimda turkiylar uzun tayoqning uchiga qovoqni osib qo‘yib, undan nishon o‘rnida foydalanib, otishni mashq qilganlar. Merganlik musobaqalarida ham undan foydalanganlar. Keyinchalik *qovoq* o‘rnida idish yoki xaltachadan istifoda etganlar. Odatda, bunday xaltacha xom teridan tikilgan va ichiga kumush bo‘lagi solib qo‘yilgan. Merganlar ot ustida turib, ana shu nishonni mo‘ljalga olib kamondan o‘q uzganlar. Hukmdorlar tilla yoki kumushdan yasalgan qovoqlarni ham osib qo‘yganlar. Turkiy xalqlar orasida “oltin qaboq” degan o‘yin ham keng tarqalgan. Bu o‘yin ko‘pincha to‘y, sayillar, Navro‘z tantanalarida tashkil etilgan. Buning u-n har biri 5–6 m. keladigan uzun yog‘ochlardan to‘rttasini bir-biriga ulab, birlashtirib bog‘laganlar. Uning uchiga qo‘yning oshig‘i yoki teshik tangani ip b-n bog‘laganlar. Merganlar uni nishonga olish bo‘yicha musobaqa o‘ynashgan. N. ijodida Q. tashbeh o‘laroq badiiy fikr ifodasi u-n qo‘llaniladi. M-n, quyidagi baytda shoir Q.dek kulfat o‘qiga nishon bo‘lganligini aytadi:

Mehnat o‘qidin qabaqdek qolmisham afg‘on aro –
Kim, bu kun chobuksuvorim yo‘qturur maydon aro,

Maz.: meni nishonga oladigan kishi yo‘qligidan g‘am o‘qidan Q. kabi oh-u fig‘onda qoldim.
“G‘.S.”dagi 43-g‘azal boshdan-oyoq Q. tashbehi asosiga qurilgan.

Kimki sarkashrak, havodis o‘qig‘a ko‘prak hadaf,
Ushbu holatni qabaq ahvolidin qilg‘il hisob.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик, 3-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик, 4-жилд. – Т., 1985; Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 2. – Душанбе, 1988.*

E.O.

QABULIY I (XV asr) – shoir. N. “M.N.”-ning ikkinchi majlisida Q. haqida ma’lumot berib, faqir kishi bo‘lganini Hirotdagi Bozori Malikda g‘azlfurushlik (kalava ip) do‘koni bo‘lganini yozadi. Bir kuni ertalab, deb davom etadi N., mahallada uch-to‘rt kishini chaqirib, Q. bu kecha olamdan o‘taman, kafanlik va ko‘mish marosimiga yaragulik hech nimam yo‘q, devonimni N.ga olib borib, iltimosimni yetkazing, meni Sodoti Musarrih go‘ristonida dafn qildursin, – deb vasiyat qilganini bayon etadi. N. shoir vasiyatini bajo qilib, dafndan so‘ng devonini ochsa quyidagi matla’ chiqqanini yozadi.

Agar qabuli tu yobam Qabuliyam, var na,
Ba har du kavn chu man noqabul natvon yoft.

Tarj.: Agar senga maqbul bo‘lsam “Qabuliyman”, yo‘q esa, ikki dunyoda mendek noqabul topilmas.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

S.G‘.

QABULIY II (XV asr) – shoir. N. “M.N.”-ning uchinchi majlisida Qunduzdan Hirotga tahsil u-n kelgani, lekin boshida parishonlig‘ va tabiatida lavandlig‘i (tanballigi) bor bo‘lganidan yaxshi o‘qiy olmayotganini yozadi.

“M.N.” oxiridagi “Xilvat” deb nomlangan qismda ana shu Qunduzdan kelgan Q. degan shoir b-n bo‘lib o‘tgan maroqli bir voqeani hikoya qiladi. Turkiy va forsiyda yozgan she’rlari bilan tanila boshlagan bu yosh shoir Husayn Boyqaro huzurida o‘tkaziladigan, “Oliy majlis” deb nomlangan she’riyat anjumanlarida qatnashish sharafiga muyassar bo‘lib, podshohning maqtovlariga ham sazovor bo‘ladi.

Kunlarning birida quyidagi matla’li:

Na’l kestim dadi afzun bo‘ldi-yu kam bo‘lmadi,
Dog‘ kuydum so‘zi kam bo‘lg‘ay debon
ham bo‘lmadi.

g‘azalini yozib, ko‘rib bering, deb N.ga olib keladi. N. bir baytda “ham bo‘lmadi” qofiyasi yaxshi chiqmaganini aytadi.

Q. – men ancha mehnat qildim, lekin yaxshi bog‘lay olmadim, bu qofiyani siz bog‘lang, – deb iltimos qiladi. N. quyidagi baytni yozib beradi:

Sarv moyil bo‘ldikim, o‘pgay ayog‘ing tufrog‘in,
Yo‘qsa har soat sabo tahrikidin xam bo‘lmadi.

Q. darhol g‘azalni ko‘chirib, birov orqali Oliy majlisga yuboradi. Husayn Boyqaro uni o‘qishi b-n ikkinchi baytni shoir uchun N. yozib berganini sezadi va buni atrofdagilarga aytadi. So‘ngra N.ni tilatib, – bu baytni u yozganmi yoki uning u-n boshqa birov bitganmikan, – deya so‘z boshlaydi. N. ajablanadi, ammo shoir yigit xijolat chekib, iqror bo‘lmaydi. Lekin Husayn Boyqaro aniq bilganidan xabardor bo‘lgach, inkor qila olmaydi. Shunda shoh: – Q.ni topib kelinglar, bir mutoyiba qilaylik – deb farmon beradi. Tezda uni keltirishadi. Majlis davom etadi, lekin ancha muddat o‘tganiga qaramay, bu haqda so‘z ochilmaydi. Oxirda hamma tarqalib, yaqinlargina qoladilar. Shunda ulardan biri, shohdan Q.ning she’ri haqida mutoyaba bo‘lmadi yoki unitildimi, – deb so‘raydi. Shoh shunday javob qiladi: “Unutilmaydi, ammo ul so‘z zikrida anga uyat bo‘lur edi, tilamadukki, g‘arib yigit majlisda, el orasida uyatlig‘ bo‘lg‘ay. Ul sababdin aning she’ri va ul bayt bobida so‘z deyilmadi”. Buni eshitgach, N. qulluq qilib, – bu rahm yolg‘uz anga voqe’ bo‘lmadikim, manga dag‘i bo‘ldi, – deb shohga minnatdorchilik izhor qiladi.

Bu lavha bir tomondan Q.ni shoir sifatidagi iqtidorini ko‘rsatib bersa, ikkinchi tomondan, N. davridagi she’riyat anjumanlari faoliyatini, Husayn Boyqaroning ijodkorlarga iliq munosabatini namoyon etadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

S.G‘.

QAVVOL – 1. Chechanlik b-n uzoq so‘zlovchi, so‘zamol; 2. So‘fiylarning zikr-u samo davrasida xonandalik, hofizlik qiluvchi. N. “N.M.” tazkirasining Abubakr Ushnoniy (q.s.) zikrida qavvol so‘zini 3 o‘rinda san’atkorona – har ikki ma’noda qo‘llagan: “Shayx Abu Abdulloh anda borib so‘rubdurkim, qavvol qaysi baytni o‘qidi? Debdurlarki, bu ikki baytni. Bayt ma’nosi: O‘z holiga tashlab qo‘yilgan dardmand oshiqning dardi o‘limdan og‘ir. Agar yashasa, turmushi qiyin, o‘lsa, armon bilan o‘ladi! Ul qavvolni uzatilarkim, yana bu ish tegrasiga evrulma!

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

B.R

QAVSI QUZAH – kamon, o‘q-yoy; kamalak: bahor chog‘larida osmonda rang-barang bo‘lib, o‘q-yoy shaklida ko‘rinadigan quyosh shu’lasi. N. yaratgan osmon jismlari b-n aloqador tasvirlar uning she’riyati va ilmiy asarlari betakror

badiiy topilmalar xazinasi ekanlini tasdiqlaydi. Xususan, devonlarida Q.Q. tushunchasi lirik qahramonning hol-kayfiyatlari yoxud ma'shuqning dilbar chehrasini yorqinroq aks ettirishda qo'l kelganini ko'rish mumkin. "G'.S." devonidagi bir g'azalda Yorning surati va siyratini so'zda chizayotgan shoir qoshlari ta'rifida qiziqarli husni ta'lil san'atini keltiradi. Odatda, yomg'ir tinar-tinmas Quyosh chiqsa, Q.Q., ya'ni kamalak ko'rinadi. Tabiatda yuz beradigan bu hodisani N. she'rga ko'chiradi: quyosh yuzli ma'shuqning qoshlari yoy misoli, boz ustiga oro berilganidan – naqshinkor, yana buni ko'rgan oshiqning ko'zlaridan yomg'ir yoqqandek yosh oqadi.

Muqavvas qoshlaringning naqshidin
giryon ko'zum bo'lmish,
Bulutdekkim, bo'lur qavsi quzahlar
oshkor andin.

Boshqa bir baytda esa qoshlarning Q.Q. misoli tovlanishiga – mahbubaning o'sma qo'ygani bois bo'lgan. O'sma tufayli qoshning tiniq yashil rangga kirishi obrazli ifoda bo'lib, uni "Vafo rangidir", deydi shoir. Darhaqiqat, yashil rang – tasavvufda tariqat yo'liga kirgan, visol manziliga yaqinlashib qolgan sadoqatli muridning holiga ishoradir.

Qoshi uzra qavsi quzah vo'smasi
Vafo rangidin keldi, albatta, toq.

"N.Sh." devoniga tegishli misralardagi manzara esa o'quvchini yanada zavqlantirib yuboradi: Yorning ikki kamon qoshlari – ikki Q.Q.ga mengzalgan. Xalq orasida bu hodisa – Hasan-Husan kamalak, deb ataladi.

Bir-biri uzra necha yo ko'rguzur qavsi quzah,
Boshqa-boshqa ermas ul ikki muanbar yoycha.

Mazkur devonda N. Q.Q. tushunchasi u-n qo'llagan tashbeh mumtoz adabiyotda deyarli uchramaydi. Baytning ma'nosiga ko'ra, davri mehr – Quyosh doirasi aro ko'ringan Q.Q. – kamalak – quyoshdek porloq siymoli yorning egnidagi ikki yoqasiga o'xshaydi. Bu yerda shoir yomg'ir yog'ib o'tgach, odatdagi vaqtlarda ilg'-ab bo'lmaydigan quyosh chambaragi oson ko'rinishini ham e'tiborda tutgan.

Nachukki qavsi quzah davri mehr aksi erur,
Topib ham egnidin aylang'an ikki yog'a boqing.

Shoir istifoda etgan xilma-xil tashbehlar har safar uning beqiyos san'atkorligini namoyon etadi. Jumladan, "B.V." devonida bir g'azal baytidagi mazmun lirik qahramonning iztiroblarini aks ettiradi. Majozan oshiq ko'ngliga tortilgan Q.Q. yoy – Mahbubaning qoshlari yoyiga tortilgandek turgan kipriklarining chiroyi Oshiqning yuragiga qadalib, jarohatlar ochadi. Yor sog'inchi, hasrati ortgan Oshiq yig'lar ekan, qonli yoshlari uzluksiz oqqanidan paykon-o'qqa, uchi kamonning temiriga aylanib qolgandek:

Chekib qavsi quzahdin yo ko'ngullar qasdig'a,
aning
Yog'in haddi xadang-u qatra sular anda
paykondur.

"H.A."da Q.Q. b-n aloqador bayt tarixiy asosga ega voqelikdan xabar beradi. Yetti iqlimning biri sanalgan Xuroson shahrini tavsif etayotgan shoir Hirotdagi eng yirik Jome' masjididan bahs etarkan, Oy unga qandil bo'lib ichini yoritib, Q.Q. lar hay'ati esa unga mehrob vazifasini bajaradi, deydi. Bundan ma'lum bo'ladiki, Jome' nihoyatda ulkan, serhasham va jozibali bo'lganki, N. Oy va kamalaklar unga bezak qilib tasvirlamoqda:

Oy kecha qandili jahontob anga,
Qavsi quzah hay'ati mehrob anga.

"F.Sh." dostonida asar qahramoni Farhodning kasbiy kamolotini madh etarkan, u falak Q.Q.ga o'xshagan yoyni kuch b-n otib, Sharqdan turib G'arbni ura oladigan darajaga yetishdi, deydi. Satrlardagi tasvir mubolag'a bo'lsada, N. tanlagan so'z (kamalak, qullob, mashriq,

mag‘rib)lar uyg‘unligi voqelikning ishonarliligini ta’min etgan.

Olib qavsi quzah chekmakka qullob,
Turub mashriq etib mag‘ribg‘a partob.

N.ning “M.” asarida “Qavsi quzah kemasi” iborasi uchraydiki, bu ijodkorning taxayyul olami naqadar poyonsiz, tafakkur dunyosi teranligini ochiq ko‘rsatgan: “To falaki mudavvar qalqonig‘a xurshedi anvar muhrasidin qubba bo‘lg‘ay va qavsi kuzah safinasig‘a sahobi sipehr paykar safinasidin bodbon qurulg‘ay...”

“V.” asarida esa Q.Q. tushunchasini ravshanlashtiruvchi ifoda tarixiy shaxsga ko‘chirilgan:

Favokih chekar tosi nilin qadah
Kuruha otar yosi qavsi quzah.

Tarj.: Mevalar soladigan tog‘orasi zangori osmon, otadigan o‘q yoyi – kamalak kabidir. Bu yerda N. do‘sti Sulton Husaynning saxiyligi va mohir merganligini nazarda tutib tasvir yaratgan.

Umuman olganda, N. ijodida tilga olingan Q.Q. – kamalak tasvirlari shoirning qomusiy olimligini dalillaydi, asarlarining boqiyligi va umumbashariyligiga xizmat qiladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Муфрадот. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Вақфия. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; ЎзМЭ. Календарь. 5-жилд. – Т., 2003.*

S.O‘.

QAVCHIN – turkiy qabila – urug‘ nomi, etnonim. Tarixiy-adabiy manba va hujjatlarda Q. haqida ko‘plab ma’lumotlar bitilgan. Q. jaloyir, barlos, arlof kabi keng urug‘ hisoblanadi. Ular Amudaryoning yuqori havzasida istiqomat qilishgan, yarim o‘troq turkiy qabila – urug‘ hisoblanadi, ularning asosiy mashg‘ulotlari chorvachilik va dehqonchilik bo‘lgan. N. asarlarida ham shu ma’noda qo‘llangan. “V.”da boshqa urug‘-qabila nomlari qatorida uchraydi: “Chun zamonning azim ush-shon sodot va fuzalosi va davronning karim ul-xulq quzzot va ulamosi va temuriynajot shahzodalar va “barlosiy” nihod ozodalar va “arlotiy” ismlik sadrnishinlar va “tarxoniy” rasmlik ayshguzinlar va “qiyot” nasablik mutaayyinlar va “qo‘ng‘irot” hasablik mutamakkinlar va “uyg‘uriy” sifot baxshilar va “uyg‘ur”chargalik yaxshilar va “cho‘li”lik biyobonida jonsiporliq qilg‘on jondorlar va boyrilik ayyomida xizmatkorliq qilg‘on jonsiporlar va “jaloyir” g‘avg‘osi va “qavchin” alolasi mavjud erdi va har mavjudqa bir maqsud va podshohona inoyat birla arjumand va har qaysini bir munosib mansab bilan sarbaland va xusravona tarbiyat, har birisini muvofiq amal shug‘lig‘a payvand qildilar”.

Ad.: *Алишер Навоий. Вақфия. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

B.R.

“QADIM XONAVODA” – N. ijodida qo‘llangan tarixiy-huquqiy istilohlardan biri. N. asarlari matnida xonavoda, xonavodayi qadim shakllarida uchraydi. Bu so‘z lug‘atlarda, asosan, xonadon, xonavoda shaklida berilgan, demak, Q.X., xonavodayi qadim yasama birikma ko‘rinishida N. ijod qilgan tarixiy-huquqiy atama bo‘lib, u davlat boshqaruvi b-n bog‘liq va asrlar davomida davlatni boshqargan bir sulolaga nisbatan qo‘llaniladi, ba’zi lug‘atlarda esa oila kabi ma’nosi ham ko‘rsatilgan. “M.N.”ning ikkinchi majlisida keltirilgan shoh Badaxshon zikrida N. uni bir marta Q.X. va uch marta xonavoda shakllarida ishlatgan. Shuni alohida qayd qilish kerakki, qadim xonavoda, xonavodayi qadim birikmalari oldidan sulola, nasab so‘zlari qo‘llanilsa, atama ma’nosi yanada aniqlashadi. N. “Alarning sulolasi qadim xonavoda erdi”, – deb yozishi mumkin edi, ammo u “Alarning xonavodasi qadim

xonavoda erdi” deb bitib, bu sulolaning davomli davlat boshqaruviga alohida e’tibor qaratgan: “Shoh Badaxshon – “La’liy” taxallus qilur erdi. Xushtab’ va musulmonvash kishi erdi. Alarning xonavodasi qadim xonavoda erdi, necha ming yil erdikim, Badaxshon mulkining saltanati alarning xonavodasidin o‘zga xonavodag‘a intiqol topmaydur erdi...”.

“S.I.” dostonining XXVII bobida Doro o‘limi oldidan shoh Iskandarga uchta vasiyat qiladi. Shundan ikkinchisida qavm-u xaylimg‘a zulm qilma, ular kayoniylardan bo‘lib, senga adovat qilmaydi, karam qilsang, “xonadoni qadim” xayling bo‘ladi, degan mazmunni ifodalar ekan, bu atamani Ajam shohlarining ikkinchi sulolasi, ya’ni kayoniylarga nisbatan qo‘llagan:

Xabo aylama xonadoni qadim –
Ki, yo‘qtur alardin sanga hech bim.

Faqih N. insonlarni o‘zaro hurmat va do‘stona munosabatga chaqirib yozar ekan, “S.I.”ning “Muxolifat” nomli bobida “to‘fon” va “vayronalik” timsoli bo‘lgan adovat faqat ahli san’at aro emas, balki ahli davlat aro ham borligidan ogohlantiradi va bu o‘rinda Q.X. atamasidan juda o‘rinli foydalangan hamda o‘z fikrlarining bashorat ekanligiga ishontira olgan. U adovat necha ming asrlar davomida davlatni boshqargan Q.X.ning buzilishiga, vayron bo‘lishiga olib keladi, degan haqiqat-u xulosalarini shunday badiiy talqin qiladi:

Topar ko‘p kishi ul adovatda bim,
Buzulur base xonadoni qadim.

Bu go‘yo jahon ichra to‘fon erur –
Ki, andin jahon ahli vayron erur.

N.ning bu ma’lumotiga hamohang ma’lumot Boburning “Boburnoma” asarida va Faxri Hiraviyning “Ravzat us-salotin” tazkirasida uchraydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Фарҳанги забони тожики. Жилд 2. – М., 1969; Навоий асарлари луғати. – Т., 1972; Фахрий Ҳиравий. Равзат ус-салотин. Форс тилидан Ж.Жўраев таржимаси. – Т., 2014.*

B.R.

QAZO VA QADAR (q.: taqdir) Qazo (ar.) – 1. azaliy yozuv, avvaldan belgilangan taqdir. 2. Tangri irodasi. 3. Biror voqeaning yuzaga kelishi, tasodif. 4. O‘z vaqtida o‘talmay qolgan biror ishni so‘ngidan o‘tash. 5. Qozilik.

Qadar (ar.) – 1. Miqdor, daraja, e’tibor. 2. Kuch, qudrat. 3. Taqdir, bitik kabi ma’nolarni bildiradi. Islom dinida va Sharq mumtoz adabiyoti sahifalarida tez-tez uchrab turadigan va bahslarga sabab bo‘ladigan e’tiqodiy tushuncha. Aqida sohasining olimlari bu xususda alohida kitoblar va maqolalar yozishgan. Muxtasar aytadigan bo‘lsak, Moturudiy ulamolarimizning “Q.” va “Q.” haqidagi qarashlari quyidagicha: “Alloh taoloning hamma narsalarning kelajakda qandoq bo‘lishini azaldan bilishi “Q.” deyiladi. “Q.” esa o‘sha narsalarning Allohning azaliy ilmiga muvofiq ravishda vujudga kelishidir”.

N. ham “M.” asarida “Q. va Q.”ni tilga oladi va uning sir ekanligini ta’kidlaydi:

Erur sirridin aqli kull bexabar,
Kim otini derlar qazo-yu qadar.

Ash’ariylarda esa so‘zlar almashadi. Ular qadar va qazo deb qo‘llashadi hamda qazo o‘rniga qadarning va qadar o‘rniga qazoning ma’nosini ta’vil qilishadi. Bu ikkala so‘z ko‘pincha taqdir so‘zi b-n ifodalanadi. Har ikkala qarash ham haqiqatga yaqin.

Q. va Q. (taqdir)ga ishonish, iymonning muhim olti shartlaridan biridir. Shuning u-n Q. va Q.ga iymon keltirmagan odamning Allohga bo‘lgan iymoni tugal bo‘lmaydi.

Imom A’zam “Fiqh ul-akbar” asarida borliqda sodir bo‘ladigan har bir ish Alloh taoloning

xohish-irodasi asosida amalga oshishini shunday ifodalaydi: “Alloh taolo narsalarni mavjud bo‘lishlaridan oldin ham azalda Biluvchi edi. U narsalarga taqdir tayin qilgan va ularga hukmini joriy qilgan Zotdir. Dunyo va oxiratdagi har bir narsa Uning xohishi, ilmi, hukmi, o‘lchovi hamda “Lavh ul-mahfuz”ga yozganidek bo‘ladi. Lekin uni vasf bilan yozgan, buyruq bilan emas”.

Abdulloh ibn Mas’uddan rivoyat bo‘lgan mashhur hadisda ona qornidagi bola to‘rt oy bo‘lib, unga jon kirganda farishtalarga to‘rt narsa (kalima) buyuriladi – kishining rizqini, ajalini, amalini, yomon yoki aziz bo‘lishini yozadilar.

Q. va Q.ga iymon keltirish deganda quyidagi narsalarga shak-shubhasiz ishonish tushuniladi:

– Alloh taolo bandalarning hali qilmagan amallarini ham oldindan biladi;

– Bandalarning qiladigan barcha amallari oldindan “Lavh ul-mahfuz”ga yozib qo‘yilgan;

– Sodir bo‘lgan barcha narsalar Alloh taoloning xohishidir;

– Paydo bo‘lgan barcha narsalarni Alloh taolo yaratgandir.

Q. va Q. masalasida islom olimlari ko‘p bahslar qilishgan. Ayrim oqimlar noto‘g‘ri talqin qilganlar. Biz yuqorida keltirgan ma’lumotlar esa, Imom Motrudiy e’tiqodida bo‘lgan olimlarimizning qarashlaridan iboratdir. N. dostonlarida taqdir masalasiga tez-tez murojaat etadi. Koinotdagi har bir narsaning hikmat va san’atkorlik b-n yaralgani, ilohiy iroda qanday bo‘lishini xohlagan bo‘lsa, dunyodagi narsalar, voqealar, hodisalar ana o‘shanday vujudga kelishi va va harakat qilishi uqtiriladi.

Xususan, “H.A.” dostonining avvalgi maqolotida iymon masalasini sharhlaydi. Iymonning oltita shartlaridan biri taqdirning yaxshi va yomonligi Allohdan ekanligi va bunga iymon keltirish shartligini aytadi:

Sodis anga keldi hadisi qadar,
Bil azaliy sabt nekim xayr-u shar.

Maz.: iymonning oltinchi sharti qadar (taqdir) dir haqidagi so‘zdir. Unda xayr-u shar (yomonlik va yaxshilik) azaldan yozib qo‘yilgan bo‘ladi.

N. davom etib yozadiki, “...alast” (azaliyat) jomi sof va to‘la bo‘lishi va abadiyat ahlining undan ichib mast bo‘lishlari uchun bu majlisda paydo bo‘lgan xoh usul va xoh fur-u (katta kichik hodisalar)ning mohiyatini anglash kerak: biror mast yoqimsiz tovush chiqarsa, sozanda esa dilkash navo chalsa, birov Ka’ba sari yo‘l olsa, ba’zisi mayxona ichida bazm tuzsa; birov cho‘lda yuz qiyinchiliklarni ko‘rsa, boshqasiga fano mayxonasi maskan bo‘lsa, Mayparast mug‘bacha mast bo‘lib, yaxshi odamlarni mast-u rasvo qilsa, zohid mayxonaga borib, may quyqasini ichadigan bo‘lsa, fosiq mayxonaga borib, xirqapo‘sh bo‘lsa, demakki, bularning barini Haq azaldan ilmi b-n bilgan va “Lavh ul-mahfuz”da yozib qo‘yilgan:

Borchasi Haq ilmida ma’lum edi,
Lavhayi mahfuzda marqum edi.

Payg‘ambarimiz (s.a.v.) hadislaridan birida kishi amali b-n emas, Allohning fazli b-n jannatga kiradi, deb aytganlar. N. qaysidir ma’noda hadisdagi “Ilohiy fazl”ga ishora qilib yozadi:

Ne yetibon yaxshi amaldin bihisht,
Ne solibon do‘zax aro fe’li zisht.

Ulki qilib Tengriga ming yil sujud,
Bo‘lsa shaqiyi azaliy qayda sud.

Mug‘bachalar dayrda qilg‘on halok
Bo‘lsa saidi abadiy qayda bok.

Ularning na yaxshi amallari jannatga kiritadi, na yomon fe’llari do‘zaxga soladi. Bir odam ming yil sajda qilsa, lekin azaliy badbaxt bo‘lsa, uning sajdasidan biror foyda bo‘lmaydi. Mug‘bachalar dayr (mayxona)da halok qilgan kishi abadiy saodatga erishsa, buning biror qo‘rqinchli joyi yo‘q! Q.va Q. masalasi N.ning boshqa dostonlarida ham ko‘zga tashlanadi. Goh shoirning

lirik chekinishlarida, gohida doston qahramonlarining faoliyatlarida taqdirga tan berish, Q. va Q.ning ilohiyligini e'tirof etish holatlari kuzatiladi. "F.Sh."da yozilishicha, Farhodning "Yunon mamlakatiga safar mayli kuchayib", Mulkoroni chaqiradi va bu yurishga otasidan rozilik olib berishini so‘raydi. Mulkoro o‘g‘il istagini otasiga aytgach, ota o‘g‘lini bu yurishdan har qancha man' etsa ham u rozi bo‘lmaydi. Farhod o‘z istagini amalga oshirishga qat'iy va bu yo‘lda taqdir boshiga qanday mojarolarni solsa ham roziligini bildirib, shunday so‘zlarni aytadi:

Dedikim: Gar gado, gar shoh bo‘lsun,
Agar g‘ofil, vagar ogoh bo‘lsun,

Tana'um birla mehnat xo‘b-u zishti,
Nekim bo‘lmish azaldin sarnavishti,

Ani to ko‘rmagay imkon emastur,
Xirad ollinda bu pinhon emastur.

Agar shoh, ar gadodur odamizod,
Emas bo‘yni qazo hukmidin ozod.

Kishi xoh gado bo‘lsin, xoh shoh, xoh g‘ofil bo‘lsin, xoh ogoh, xoh ne'matlarga ko‘milgan bo‘lsin, xoh mehnat mashaqqatlarga giriftor bo‘lgan bo‘lsin – bundan qat'iy nazar, azaldan manglayiga yozilgan har qanday yaxshilik va yomonlikni ko‘rmasdan iloji yo‘q. Bu aql oldida yashirin emas. Odamzod shoh bo‘lsa ham, gado bo‘lsa ham baribir uning bo‘yni qazo hukmidan ozod emas. Qismatda nima yozilgan bo‘lsa, shu bo‘ladi.

Yozilg‘on nuktani tag‘yir qilmoq.
Erur suv uzra xat tahrir qilmoq.

Qazo kilki ne xatkim qildi mastur,
Emas hargiz ani tag‘yiri dastur.

Zamonning bori ishda zufununi,
Erur gardun fununining zabuni.

Kishining yer yuziga hukmi yetsun,
Qazoyi osmoni yetsa, netsun?

"L.M." dostonida Majnunni Navfalning qizi b-n unashtirmoqchi bo‘ladilar va ularni bir xonada uchrashtiradilar. Lekin Navfalning qizi Majnunga yaxshi ko‘rgan yigiti borligini va Majnunga uning ham Laylisi borligini aytgandan keyin, Majnun qiz b-n kelishib, chiqib ketadi. Bu holni mushohada etgan Navfal bo‘ladigan to‘yni muborakbod qilish u-n kelgan Majnun odamlari oldida xijolatga qolib, ulardan uzrlar tilaydi va bo‘lgan voqeaning taqdir ekaniga ishora qiladi:

Kim: "Tengridin erdi bo‘yla taqdir,
Nekim taqdir erur, ne tadbir!

Ne sizdin o‘lub bu ish, ne bizdin,
Balkim ne o‘g‘uldin-u ne qizdin.

Taqdirdin erdi bo‘yla holat,
Shukr aylang-u raf' eting malolat".

"S.I." dostonida ham Iskandar Arastudan kishining o‘z fe'l-u xo‘yi tufayli ziyon va foyda ko‘rishining sabablari haqida savol so‘raydi va bunga uch xil javob oladi. Arastu uchala savolga javob bergandan keyin bu savollarga ahli haqiqatning javobi quyidagicha ekanligini tushuntirib beradi: "...lekin haqiqat ahllari aytadilarki, xoh ahli masjid xoh butparast bo‘lsin, taqdirida nima yozilgan bo‘lsa shuni ko‘radi. Qancha tadbir-u chora axtargani bilan hech kim taqdirni tag‘yir qilib, o‘zgartirish imkoniyatiga ega emas. Kimki bir ishni "savobli" deb bilsa-yu, ammo uni yuzaga chiqarish imkoniyatiga ega bo‘lmasa, buning haqiqiy sababi u ishning yuzaga chiqishiga Tangrining xohishi yo‘qligidadir.

Gar ish fikrini topti tadbir ila,
Bu tadbiri tuz keldi taqdir ila.

Ham ermas aning roy-u tadbiridin
Ki, ul ham erur Tengri taqdiridin.

Hamul xaylkim ahli tahqiq erur,
Bu ish ul el ollinda tavfiq erur.

“L.T.” dostonida ham Odam (a.s.)ning axloqi go‘zal va “Safiy” (sof, pokiza) bo‘lgani, lekin gunoh qilib qo‘yib, jannatdan quvilgani va Hindiston o‘lkasiga tushib, uzoq yillar tavba qilib gunohi kechirilgani haqida hikoya bor. N. bu hodisani ham Allohning taqdiri b-n amalga oshganligini aytadi. Har holda ulug‘ shoirimiz hadislarni yaxshi bilgan bir olim sifatida quyidagi hadisni nazarda tutgan bo‘lsa ajab emas: “Abu Hurayra (r.a.)dan rivoyat qilinadi: “Payg‘ambar (s.a.v.): “Odam va Muso (a.s.)lar Rabbilari huzurida tortishib qoldilar. Bas tortishuvda Odam Musodan g‘olib keldi. Muso: “Alloh seni O‘z qo‘li bilan yaratgan, ichingga O‘z ruhidan puflagan, farishtalarni senga sajda qildirgan, seni jannatiga joylagan, so‘ng o‘z xatoying ila odamlarni yerga tushirgan Odam senmisan?” – dedi. Shunda Odam: “Alloh seni O‘z payg‘ambarligiga va kalomiga tanlab olgan, ichida har bir narsaning bayoni bor lavhlarni bergan va munojot uchun O‘ziga yaqinlashtirgan Muso senmisan? Alloh Tavrotni mening xalq qilinishimdan qancha oldin yozgan deb bilding?” – dedi. “Qirq yil”, dedi Muso. “Unda, Odam Robbisiga isyon qildi va adashdi, deganini ko‘rdingmi?” – dedi Odam. “Ha”, dedi Muso. Odam “Ey Muso, sen menga Alloh taolo meni yaratishidan qirq yil oldin yozib qo‘ygan amalni qilganimni malomat qilasanmi?” – dedi. Rasulluloh (s.a.v.): “Bas, Odam tortishuvda Musodan g‘olib keldi”, dedilar”. Aslida esa Odam (a.s.) o‘z qilmishini azaliy irodaga bog‘lab, bu narsa Allohning azaldan belgilab qo‘ygan ilmi asosida bo‘lganini aytib, butun insoniyatning baxtsizligi u-n javobgarlikni inkor etgan, ammo Shayton vasvasasiga uchib, nafs xohishi asosida birinchi xatoga yo‘l qo‘ygan chog‘danoq jufti Havo onamiz b-n ikkovlari bir necha yillar davomida gunohlariga tavba qilgan va oqibatda, Haq dargohida tavbalari qabul bo‘lgan. Qur’oni Karimda bu haqda aytilgan: “Ikkovlari: “Ey Robbimiz, biz o‘zimizga zulm qildik. Agar Sen bizni mag‘firat qilmasang va bizga rahm qilmasang, albatta, ziyon ko‘rganlardan bo‘lamiz”, dedilar. (A’rof surasi 23-oyat). “Bas, Odam o‘z Robbisidan so‘zlarni qabul qilib oldi, keyin U zot uning tavbasini qabul qildi. Albatta, U tavbani qabul qiluvchi va rahmli zotdir” (Baqara surasi 37-oyat).

Odam (a.s.) b-n bog‘liq bu voqeaga shunday izoh beriladi. Taqdiri azalda bunday hodisaning bo‘lishi yozilgan edi, ammo u Odam (a.s.) xatosi va nafs xohishi b-n amalga oshdi. Shuning u-n hazrati Odam (a.s.) hayoti dunyoda o‘z gunohini e’tirof etib, tavba qildi. Shubhasiz, N. Odam (a.s.) qissasining mohiyati, taqdir va tadbir tushunchalari haqida o‘z qarashlariga, ilmiy xulosalarga ega bo‘lgan mutafakkir shoir edi. Lekin taqdirning jumboqli savollari doim uni ham o‘ziga jalb qilardi. Shu bois, u “Munj.” asarida yana Odam (a.s.) qismatini eslaydi. Husni ta’lil san’ati asosida hayrat va taajjub b-n Odam (a.s.) hayoti haqida Tangriga xitob va savollar berib, murojaat etadi: “Odam xilofot taxtining mustavjibi o‘zimu bo‘ldi, sening taqdiring bo‘lmay shayton muxolifatining so‘zimu bo‘ldi?

Ilohi, berguchisen ham fisq-u fujurni, ham zuhd, ham vara’ni, alarning tuhmatin bir necha ojizg‘a bog‘lamoq ne ya’ni?

Ilohi, chun har ne qililur sanga taqdirdur, qilg‘uchig‘a qilmoqta ne tadbirdur.

Ilohi, taqdir qilg‘aningni qilurg‘a ne ixtiyor, qilmasmen demakka kimning haddi bor”. Diqqat qilsak, yuqoridagi xitob va e’tiroflar ya’ni Odam (a.s.)ning xalifa bo‘lishi, Shayton vasvasalari, gunoh va savob ishlarning sodir bo‘lish sabablari haqidagi savol va javoblar dostonlardagi qarashlari b-n hamohang bo‘lib ketadi.

N. g‘azallarida ham Q. va Q., taqdir tushunchalarini tez-tez tilga oladi. U bir baytida o‘ziga xitob qilib, taqdirdan boshingga nima kelsa, qabul qil. Sen uni o‘zgartirolmaysan. Charx, bu aylanuvchi falak ham aslida senga o‘xshash “qazo amri”ga zabundir, uning yo‘llanmasi b-n harakat etadi, deydi. “Dunyoni haqorat qilmanglar, uning ichida men borman”, – degan hadisi qudsiydagi amrdan ham ma’lum bo‘ladiki, dunyo taqdir asosida yaralgan va Yaratganning amr-u farmoni, izn-u irodasi b-n o‘zgaradi, yashnaydi yo xarob bo‘ladi va h.k.

Taqdirdin ne kelsa, Navoiy, itoat et,
Kim sen kibi zabun erur amri qazog‘a charx.

N. forsiy she’rlarida ham Q.va Q.dan bahs yuritgan. U tasavvufga oid “Qut ul-qulub” (qalblar ozuqasi) nomli qasidasida iymonning hamma shartlari qatorida Q. va Q.ga ham to‘xtaladi:

Digar vujudi hama xayr-u shar, ki az qadar ast,
Bad on sifat, ki ba taqdiri xeshtan orost.

Tarj.: Yana barcha yaxshi va yomonning mavjudligi qadardandir va Allohning taqdiri mana shu yaxshi va yomon ishlar bilan muqarrar bo‘ladi.

Xullas, N.ning orifona va oshiqona dunyoqarashida qazo-yu qadar masalasi o‘ziga xos ahamiyatga ega.

Ad.: *Алишер Навоий. ТАТ. 10 жилдлик, 1-10-жилдлар. – Т., 2011; ЎзМЭ. – Т., 2017. Имом Муҳйиддин Закариё ибн Шараф Нававий. Қирқ ҳадис. – Т., 2022.*

S.R.

QAYSAR (Qaysari Rum) – Rum hukmdorlarining tituli. Sharqda Rim va Vizantiya imperatorlarini shu titul b-n ataganlar. Lotincha “Kayzer” yoki “Kesar” so‘zlaridan kelib chiqqan. Ma’lumki, Rimda Yuliy Sezar suiqasd natijasida o‘ldirilgandan so‘ng, avj olib ketgan hokimiyat u-n kurashda Oktavian (Sezarning jiyani) g‘olib chiqqan. Hokimiyat tepasiga kelgach, u Rimda respublika tuzumini tugatgan va o‘zining yakka hokimiyatini o‘rnatgan. Mil.av. 27-y. Rim imperiyasi tashkil topgan sana hisoblanadi. Ana shu paytdan boshlab Rimda juda ko‘p imperatorlar hukmdorlik qilgan. Keyinchalik imperiya ikkiga (G‘arbiy va Sharqiy Rim imperiyasiga) bo‘lingan. Bu davrda ham ko‘plab imperatorlar faoliyat ko‘rsatgan.

N. asarlarida, xususan, “T.M.A.”da bir qator Rim va Vizantiya imperatorlari faoliyatiga oid qaydlar va ma’lumotlar mavjud. Bu o‘rinda shuni ta’kidlash lozimki, N. ulardan faqat Oktavian Avgustni o‘z nomi b-n “Ag‘ustus qaysar” deb tilga oladi. Qolganlarini esa “Rum qaysari” yoki “qaysar” deb ataydi. Lekin qaysi davr va voqealar haqida so‘z ketayotganiga qarab N. u yoki bu o‘rinda qaysi imperator haqida so‘z yuritayotganini aniqlash mumkin. Bizning kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, “T.M.A.”dagi qaydlar va ma’lumotlar Valerian, Yulian, Feodosiy, Mavrikiy singari imperatorlar faoliyatiga tegishli (ular haqida maqolalar berildi) bo‘lib, ular ulug‘ shoir va mutafakkirning dunyo tarixi bo‘yicha keng bilimlarga ega bo‘lganligidan dalolat beradi. Va nihoyat bir istisno holatni ham qayd etib o‘tish zarur. “T.M.A.”dagi bir o‘rinda N. “Qaysari Rum” iborasini Faylaqusga, ya’ni Makedoniya hukmdori Filipp (Aleksandr Makedonskiyning otasi)ga nisbatan ham qo‘llagan.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Ковалев С.И. История Рима. – Л., 1986; Гумилев Л. Древние тюрки. – М., 2008; Ражабов Қ. ва б. Жаҳон тарихининг муҳим саналари. – Т., 2011.*

Q.E.

QAYTARIQ – so‘z takroriga asoslangan lafziy san’atlardan biri bo‘lib, misra boshida kelgan so‘zning satr oxirida takrorlanishidan hosil bo‘ladi. Bunday takror tajnisli bo‘lishi, ikki so‘zdan tashkil topishi hamda baytning har ikki misrasida kelishi ham mumkin. M-n:

Jon berur har dam Navoiy, ne ajab, gar bersa jon –
Qulki, ayrilg‘ay begidin, bek nekim, sultonidin.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Т., 2001.*

E.O.

“QAYSI OMIR...” – Q.O. N.ning “L.T.” dostonida “Ishq tariyqi adosida munojot” qismidan keyin keltirilgan hikoyatdagi perso-

naj bo‘lib, CLXVIII va CLXXVIII bo‘limlarda, ya’ni har ikkala hikoyatda ham faqat Majnun, ya’ni oshiq ishtirok etadi va hikoyatlar mazmun jihatidan bir-biriga yaqin hisoblanadi. Birinchi hikoyatda Majnunning o‘zicha so‘zlashayotganini ko‘rgan bir kishi “kim bilan gaplashyapsan?” – deb so‘raydi. Majnun “Layli bilan”, deb javob beradi. Shunda:

Dedi: “Ondin to sengadur xeyli yo‘l!”
Dedi: “Ey g‘ofil, erur yonimda ul.

Ulki oning zikridur jonimda qut
Yo‘l yiroq bo‘lg‘onda bo‘lg‘aymu unut!”

N. ushbu hikoyat b-n ishq yo‘lida masofa ahamiyat kasb etmasligini ta’kidlaydi. 2-hikoyat Sharq xalqlari og‘zaki ijodida yoki Majnun haqidagi tarqoq arab manbalaridan olinib, qayta ishlangan:

Qaysi Omirni chu ishq etti zabun,
Zoyil etti ishq aro aqlin junun. ...Dedi:

– Ulkim – Layli o‘ldi zot anga,
Hojat ermas aylamak isbot anga.

9 baytli bu hikoyatda N. tasvirlashicha, “Layli ishqida mag‘lub” Q.O.dan bir kimsa “Oting nedur?”, deb so‘raganida, u “Layli!”, deb javob bergan. Bunda shoir Q.O.ning o‘zligini unutib, o‘zini Layli deb hisoblayotganligini, ya’ni Layli zotiga foniy bo‘lganligini aytib, uni ishqda kamolotga yetgan, deb hisoblaydi.

Ta’kidlash kerakki, Q.O. “L.M.” dostonida bosh qahramon bo‘lsa-da, mazkur hikoyatlar unda keltirilmagan.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Мамадалиева З. Алишер Навоийнинг “Лисон-ут тайр” достонидаги рамзий образлар тизими. – Т., 2016.*

S.O‘.

QAZVINIY HAKIMSHOH MUHAMMAD IBN MUBORAK (vafoti taxminan – 1559) – tarjimon, shoir va tabib. Eronning Qazvin shahrida tug‘ilgan. Otasining ismi Muborak bo‘lib, Hakimshoh Qazviniy nomi b-n tanilgan. Tabiblar oilasida voyaga yetgan u-n tabiblik ilmini chuqur egallaydi. Muqaddas shahar Makkaga borib, u yerda bir muddat yashaydi, do‘sti Muayyadzoda tavsiyasi b-n Turkiyaga keladi va saroyda tabiblik qiladi. Sulton Boyazid II, Yavuz Sulton Salim va Sulaymon podshohlar davrida yashab, Istanbulda vafot etgan. Q.H. turk va fors, arab tillarini yaxshi bilgan. Tabiblik ilmi qatorida kalom ilmi, fiqh, tafsir, mantiq, tilshunoslik, adabiyotshunoslik sohalarida ham chuqur bilimlar egasi bo‘lgan. She’rlari, tarjimalari b-n saroyda ijodiy muhit, ilm-fanning ravnaq topishiga katta hissa qo‘shgan. Jumladan, Qur’oni Karimning “Fath” surasidan boshlab yozgan tafsiri, Ibn Hojibning “Qofiya” asari sharhi, “Ad-Diroya sharh ul-Hidoya”, “Sharh al-aqoid an-Nasafiya” singari 6 ta mashhur diniy kitoblar sharhi, tibbiyotga doir kitoblar sharhi, Damiriyning “Hayot ul-hayvon” kitobining fors tilidan turk tiliga tarjimasi kabi 14 ta sharh va tarjima kitoblar muallifi deb ko‘rsatilgan. Biroq ilmiy adabiyotlarda Qazviniyning keng qirrali faoliyati haqida ma’lumotlar yetarli emas.

O‘zbek kitobxoni uni faqat “M.N.” tarjimoni sifatida taniydi. Q.H. Faxriy Hirotiydan keyin ikkinchi bo‘lib N.ning “M.N.” asarini “Hasht behisht” nomi b-n fors tiliga tarjima qilgan. Sulton Salim davrida obro‘ topgan olim tarjimalari ortidan usmonlilar saltanati b-n aloqada bo‘lgan fors shoirlarini ham ko‘rsatishga intiladi. Tarjima jarayonida 100 ga yaqin o‘zgartirish kiritadi, ayrim shoirlar tarjimayi holini tushirib qoldirgan bo‘lsa, ayrim voqealarni, she’rlarning davomini to‘ldiradi. Xususan, 1-majlisda 6, 2-majlisda 5, 3-majlisda 55 ta, 4-majlisda 21 ta, 5-majlisda 3 ta, 6-majlisda 3, 7-majlisda 12 nafar shoirni tushirib qoldiradi, oxirgi majlisdagi Husayn Boyqaro ta’rifini yettinchi majlisga qo‘shib yuboradi. “M.N.” tarjimalari bo‘yicha maxsus risola bitgan

R.Vohidov Q.H. kiritgan qismlarni yangi kiritilgan she'riy parchalar, shoirlarning kasb-kori, fe'l-atvori, hasbi holiga doir ma'lumotlar va ijodiga doir yangiliklar, ular haqidagi hikoyat va rivoyatlar, tarjimonning o'ziga tegishli lavhalar, N. tarjimayi holi va ijodiga doir materiallar shaklida guruhlaydi. Asliyatda 459 ta ta'b ahli haqida ma'lumot borligi, tarjimada esa ular soni 570 ga yetkazilganini qayd etadi.

Q.H. o'z davrining bilimdon olimi sifatida ma'lumotlar to'plab borgan, Eron va Turkiyada ijod qilayotgan adiblarni ham tazkiraga kiritgan. Tarjima garchi asliyatdan ancha uzoqlashgan bo'lsa-da, N.dan keyingi davr adabiyoti haqida ham ma'lumot berishi b-n qimmatli manba hisoblanadi. Kitobning Said Nafisiy nusxasi va Turkiyadagi 3788 raqamli nusxasi asosida Faxriy "Latoyifnoma"si b-n bir jildda eronlik olim Ali Asg'ar Hikmat tomonidan nashrga tayyorlangan (1945). Mazkur tarjima haqida A.N.Boldirevning "Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" asari forsiy tarjimalari" (1952), A.K.Borovkovning "Majolis un-nafois" (1947) maqolalarida ma'lumot berilgan. S.G'anieyva tarjimani "Majolis un-nafois"ga qiyosan tadqiq etgan. Q.H. asarni tarjima qilib, o'z davri ijodkorlari haqidagi ma'lumotlarni ham kiritib, N. an'analarini ijodiy o'zlashtirgan, bu ishi bilan Eron va Turkiyada asarning tezroq ommalashishiga hissa qo'shgan adib va tarjimondir.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Воҳидов Р. "Мажолисун нафоис"нинг таржималари. – Т., 1984; Ғаниева С. "Мажолис ун-нафоис"нинг форсий таржимасидаги баъзи иловалар ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1964, 2-сон; Izzatillayev P.I. "Hasht bihisht"va "Majolis un-nafois" asarlarining matniy tadqiqi" // Oltin bitiglar. – T., 2022; https://teis.yesevi.edu.tr/2520madde-detay/hakim-sah-mehmed; Hakîm Şah Muhammed Kazvînî – Islam Alimleri Ansiklopedisi – Ehlisunnetbuyukleri.com*

O.T.

QALAM – N. "X." dostonlarining so'z b-n bog'liq boblarida, ayniqsa, "F.Sh."dagi "Q." faslida "Kun" amri, "so'z" timsollaridan keyin Q. va yakqalam ramzlarini mahorat b-n tasvirlagan. "Q." ramziy obrazi orqali yoritgan badiiy-estetik fikrlari, avvalo, Qur'oni Karimning 52 oyatdan iborat 68 – "Qalam" surasining "1-oyat. Nun. Qasamdur qalamga va ul narsagaki, ahli qalam yozurlar!" va "52-oyat. Bu Qur'on tamom ahli olam uchun nasihatdur" oyatiga va boshqa suralardagi so'z – qalam b-n bog'liq oyatlarga hamohangdir, deya olamiz. "H.A."dagi "...besh barmog'ida qalam tutmay aqolimi sab'ani yakqalam qilg'oni, balki jami milal avroqig'a nasx qalami chekkani" nomli uchinchi na'tda shoir yakqalam sohibi Muhammad (s.a.v) ekanligini ta'kidlaydi:

Tig'i siyosat boshin etti qalam,
Kimki chiqordi raqamingdin qadam.
Itsa qalam qayda g'am o'ldi sanga,
Chunki jahon yakqalam o'ldi sanga

So'ngra Muhammad (s.a.v.)ning Rum podshosi Qaysarga, Eron shohi Xisravga (Xisravning rasul (s.a.v.) nomasini yirtib, zavolga uchragani haqida) yo'llagan nomasi xususida N. "T.M.A." asarida shunday yozadi: "... ul hazrat anga din va islom da'vlatig'a noma bitib kishi yubordi. Va ul bu muzaxrafot g'ururidin ul hazratning muborak nomasini yirtti va itoat qilmadi. Va o'z mulk va dalatig'a qasd qildi". Habashiston podshosi Najoshiyga, Misr podshosi Muqovisga, Bahrayn podshosi Munzir ibn Soviyga, Ummon podsholariga, Yamoma o'lkasi amiri Havza ibn Aliga va Shom o'lkasining voliysi Horis ibn Abu Shamirga yuborgan tarixiy nomalariga yashirin talmeh vositasida ishora qilib, quyidagi misralarni yozadi:

Noma qaro qilg'oli bo'lduk sari',
Nomasiyahlarg'a chu sen-sen shafe'.

Ey yovumay nomag'a xomang sening,
Xoma yo'q-u Haq sori nomang sening.

Haq azaliy rahmati jovidin sen,
Noma qaro qilg‘on el ummidi sen.

Kimki amal nomasin aylab qaro,
Sen kirib oning qaro joni aro.

“X.”da “Q.” obrazi ham “so‘z” obrazi kabi ta’rif va tavsif qilinadi. N. Q.ni kilk, taqdir Q.i, qazo Q.i, shoir Q.i kabi shakllarda qo‘llaydi hamda Q. va ijodkor, Q. va dovot, Q. va varaq, Q. va so‘z singari o‘zaro teng munosabatli so‘zlarning badiiy chizgilarini yaratadi. O‘quvchini ijodkorlarning asarlari so‘z va Q. bois xalq orasida tarqalishiga, avloddan avlodga ma’naviy meros bo‘lib qolishiga o‘z asarlari misolida ishontiradi:

Agar bir qavm, gar yuz, yo‘qsa mingdur,
Muayyan turk ulusi xud meningdur.

Olibmen taxti farmonimg‘a oson,
Cherik chekmay Xitodin to Xuroson.

Xuroson demakim, Sheroz-u Tabriz
Ki, qilmishdur nayi kilkim shakarrez.

Ko‘ngul bermish so‘zumga turk jon ham,
Ne yolg‘uz turk, balki turkmon ham.

Ne mulk ichraki bir farmon yibordim,
Aning zabtig‘a bir devon yibordim.

Demak, ushbu baytlarda N. faxriya san’atini qo‘llab, butun turkiy xalqlar meniki bo‘ldi. Men Xitoydan Xurosongacha bo‘lgan yerlarni asarlarim – devonlarim, umuman, so‘zlarim, Q.im bilan zabt etdim, deya iftixor qiladi. Hatto, hukmdorlarning farmonlari so‘z va Q. tufayli turli yurtlarga yetib borishidan xabar beradi. Bu esa bizga mashhur hikmatni yodga soladi:

Qalam guftor, ki man shohi jahonam,
Qalam kashro ba maqsad merasonam, –

Maz.: Q. dediki, men jahon shohiman, qalamkashni maqsadiga yetkazaman.

Q. vasfiga alohida bob bag‘ishlash kabi N. an’anasining mukammal shaklini Shermuhammad Munis ijodida o‘qib, o‘rganishimiz mumkin. Ayniqsa, “Sa’vodi ta’lim” asaridagi 28 misradan iborat “Qalam ta’rifi” va bir hikoyatning keltirilishi hamda tadrijiylik asosida aynan Q. ramzining fazilati, qadri xususida “Qalamtarosh sifati”, “Qalam tafovutidakim”, “Qalamqat ma’rifati”, “Qalam yo‘nmoq tariqasi” singari maxsus sarlavhalar b-n she’rlarning alohida tasnifi fikrlarimiz isbotidir. Munis Q.ning nafaqat ijodkorlar, balki barcha ma’rifat istaganlar u-n ham ahamiyati katta ekanligiga alohida urg‘u beradi. Q.ni poetik muhim hodisa, deb baholaydi:

Olam ishi intizomi andin,
Olam elining nizomi andin.

Ul bo‘lmasa,bo‘lmag‘ay kitobat,
Bu bo‘lmasa,qolmag‘ay hikoyat.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Ал-Қуръон ал-Карим (Таржимон ва тафсир қилувчи Олтинхон Тўра). – Т., 1994; Алихонтўра Соғуний. Тарихи Муҳаммадия. – Т., 2007; Мунис Шермуҳаммад. Саъводи таълим. (Адабиёт ўқитувчилари учун қўлланма) Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи. Жумахўжа Н. – Т., 1997.*

B.R.

QALANDAR (q.: QALANDARIYLIK VA NAVOIY) Q. so‘zining kelib chiqishi va ma’nolari haqida olimlar bir to‘xtamga kelishmagan. Vaqt o‘tishi b-n bu so‘zning ma’nolari o‘zgarib borgan. Og‘zaki va yozma adabiyotimizdan keng o‘rin olgan. Bugungi “Q.” atamasi ilk marotaba qaysi manbada qo‘llanganligi hozircha noma’lum. Ba’zi tadqiqotlarda birinchi bo‘lib Abdulla Ansoriy (1006 – 1089) “Qalandarnoma”sida bu so‘zni qo‘llagan bo‘lishi mumkin, degan taxmin

ilgari suriladi. Manbalarda Q. so‘zining kelib chiqishi haqida shunday deyiladi: Q. aslida kalandar (ar.) – eshik tez ochilib ketmasligi u-n orqasidan tirab qo‘yiladigan tarashlanmagan kunda; Q. (Qalan+andar. turkcha) – og‘ir yuk ostida qolgan, og‘ir yuk tashigan; Aqall andar (ar.+f.) – oz ahamiyatsiz, xor bir ahvolda bo‘lgan; kalontar (f.) kattaroq, yirikroq, sochlari o‘sib ketgan beso‘naqay odam; kalet, kaleto‘z (y.) – taklif qilmoq, da’vat qilmoq; Q. (sanskrit.) qonundan tashqari, qonunni buzuvchi. Q. (f.) – darvesh, dunyoga qo‘l siltagan, tarki dunyo qilgan mujarrad, so‘qqabosh kishi.

Q. atamasi fors shoirlari Ansoriy (v. 1089.), Sanoiy (v. 1131.) va Attor (v. 1270.) asarlarida tez-tez uchraydi. So‘fiyona she’riyatning xiyla keyingi namoyandalari ijodida Q. atamasi yuqoridagi mazmunidan ancha yiroqlashadi.

Qalandariyaga oid ba’zi manbalarda “Q.” maqtalib, ma’nosiga nisbiy izoh berilgan. “qof” – qanoat, “lom” – lutf, “nun” – nadomat, “dol” – diyonat, “re” – riyozat.

Og‘zaki va yozma adabiyotimizda, tarixiy asarlarda qo‘llangan “Q.” atamasi bir-biridan ma’no, maqsad, g‘oya va timsoliy xususiyatlari b-n farqlanadi.

XV asrga kelib, Q. atamasi Jomiy va N. kabi ulug‘ shoirlar ijodida turli ma’nolarda ishlatildi.

N. ijodida Q. atamasi salbiy va ijobiy ma’noda qo‘llanadi. Ijobiy ma’noda Q. – Haq oshig‘i; dunyoning mayda-chuyda ishlariga, gap-so‘zlariga parvo qilmaydigan; o‘z yo‘lida sodiq; qalandarlik tariqatini ixtiyor qilgan kishi.

Ishq aro pok-u qalandarlik kerak,
Shu’la bahrida samandarlik kerak

N. “B.V.”dagi bir g‘azalida ma’shuqning Q. larga xos bo‘lgan qosh qirish odati b-n bog‘liq holat va harakatlarini hamda ichki kechinmalarini izchil tasvirlagan. Salbiy ma’noda Q. tekinxo‘r va sadaqa evaziga kun ko‘radigan kishi; shilqim gado. “M.Q.”da shunday toifalarni tanqid qilgan:

N. Q.larni o‘ziga xos qiliq va qiyofasi b-n tasvirlaydi. U “M.N.”da Mir Lavand degan shoir haqida: “ jahongashta kishidur. Q.lik suratida yurur erdi”, desa, Amir Temur g‘azabidan qochib yurgan Mironshoh Mirzoning mulozimlaridan biri Xoja Abdulqodir haqida: “Qalandar bo‘lub, o‘zin devonaliqqa solib mulkdin-mulkka mutavori yurur erdi”, deb yozadi. “Bir kun jamoati qalandaron Hamadong‘a yetibturlar va alar birla bir sohibjamol yigit ermish va anga ishq mashrabi g‘olib...”. N. Q. so‘zi asosida qalandarvash, qalandarpesha, qalandarmashrab, qalandarsifat, qalandarxona kabi rang-barang ma’nolarga ega bo‘lgan so‘zlar yasaydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилдлар. – Т., 2011; Саъдиддин Хўжатурк. Қаландария тариқати ва Хатиби Форсийнинг қаландарномаси. Армуғон. // Эрон шоҳаншоҳлигининг 2500 йиллигига бағишланади. 1971; Зарринқуб А. Жустужў дар тасаввуфи Эрон. – Душанбе, 1992; Турк энциклопедияси. 21-жилд. – Анқара. 1974; Учоқ А.Я. Қаландарийлар. (XVI–XVII). Анқара. 1992; Ислом. Энциклопедик луғат. –М., 1991; Гиёс ул-луғат. Жилд 3. – Душанбе, 1988; Фарҳанги забони тожики. Жилд 2. – М., 1969; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик, 4-жилд. – Т., 1985; Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 томлик, 2-том. – Т., 1981; Саййид Жаъфар Сажжодий. Фарҳанги мусталаҳоти урафои мутусаввифа ва шуаро. – Теҳрон. 1389 (ҳ.-ш.).*

S.R.

QALANDARIYLIK VA NAVOIY (q.: Qalandar) – Sharq xalqlari og‘zaki va yozma adabiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan qalandariylik XI asr boshlaridan e’tiboran malomatiylik maslagi ta’sirida paydo bo‘la boshlagan. Keyinroq Jamoliddin Sovajiy (vafoti, 1232) uning qonun-qoida va asoslarini belgilab berib, bu tariqat

asoschisi sifatida tan olingan. Ancha murakkab tarixiy jarayonni boshidan kechirgan qalandarlik haqida fanda turlicha qarashlar mavjud.

N.ga qadar o‘tgan turkigo‘y shoirlar ijodida Q. maslagi u yoki bu darajada ko‘zga tashlansa, N. ijodida bu maslak yorqin misollar va ayricha tashbehlar asosida namoyon bo‘ladi. N. tasavvufning naqshbandiylik tariqatiga mansub ulug‘ shoirlardan bo‘lsa-da, u tasavvufdagi boshqa tariqatlar tarixi va qonun-qoidalaridan chuqur xabardor edi. N.ning asarlarida ko‘plab tariqatlar va mazhablarning nomi, ular haqidagi fikr va qaydlarning uchrashi ham tasodifiy emas. Ingliz olimi J.S.Trimengem “Islomda tasavvuf tariqatlari” asarida 325 dan ortiq tariqatlarning nomini keltiradi. “Qalandar”, “qalandarnoma”, “qalandarxona” – bular N. ijodida tez-tez uchraydigan atamalardir. Shoir asarlarida soxta qalandarlar ham, haqiqiy oshiq timsoli bo‘lgan qalandarlar ham tilga olingan.

Qalandarlarning tashqi ko‘rinishi va kiyimkechagi ham g‘ayrioddiy bo‘lgan. Soch, soqolmo‘ylov, hatto, qoshlarini ham qirtishlab yurish, o‘ziga xos to‘n, xirqa, paxmoq yungli kuloh, har xil jez bezaklar–munchoqlar, halqalar, bilaguzuklar, uzuklar taqib olish, qo‘lda aso, belda kachkul b-n qalandarona mavzudagi g‘azallarni o‘qib yurish ularning odatlaridan hisoblangan.

Ba’zan “ayyor” va “sarboz”lar libosini kiyishsa, gohida mo‘yna, junli kiyimlar hatto qoplon va yo‘lbars terilarini ham yopinib yurganlar. Ular tortinmay ko‘nglidagi gaplarini aytar, hissiyotga berilmas edilar. Odamlardan o‘zini chetga olishi, munofiqlik, riyokorlik, qimmatli narsalardan hazar qilishi, bir burda nonga va bir sidra kiyimga qanoat qilishlari lozim edi. Ochiq chehrali bo‘lish, xushmuomalalik, doimo yo‘lda-harakatda, pir amrini bajarish, maqsad sari intilish kabilar tariqatlarining asosiy nizomlaridan hisoblangan.

Shoir “F.K.” devonidagi 37-qit’asida Haydar qalandar siymosini gavdalantiradi. U egnida qoplon terisini yopinib, qo‘lida aso tutib, “jahon sargashtasi” bo‘lib bozorlarni aylanadi.

Erur davron urarda Mirhaydar
Jahon sargashtasi – gardun misoli.

Yopibon egniga qoplon terisi,
Tutubtur ilgiga kishti hiloli.

Hasanxoja Nisoriy “Muzakkiri ahbob” tazkirasida Amir Haydar N.ning qarindoshlaridan ekanligi va “... yolg‘izlik va yakkalik yo‘lini ixtiyor qilib, qalandarlik so‘qmog‘ida qadam tashlab, fano libosini kiyib, faqirlik va kambag‘allikda bayroq bo‘lib, aylanuvchi ayvon ostida yo‘qlik nog‘orasini chalgandir”, – deb uning qalandarligi haqida ma’lumot beradi.

N. “G‘.S.”dagi 14-qit’asida riyokor zohidni tanqid qilib, qalandar tabiatli kishini unga namuna qilib ko‘rsatadi. Qimorboz, qalandar, mashrab kishi fisq-u fasod qilsa ham unda riyo yo‘q. U borini to‘kib soladi. Zohid esa riyokor. U tasbeh aytgani b-n dunyo yig‘ish ilinjida. Shuning u-n shoir zohidga qarata: “Qimorboz, qalandar tabiatli kishilarni ko‘rsang, ulardan ibrat ol va dunyoga ko‘p mashg‘ul bo‘lma, qimor donasini o‘ynab, foydasini xalqqa tarqatganing, tasbeh aytib, tangalardan kelgan foydani hisoblaganingdan yaxshiroqdir”, – deydi.

Ko‘rsang, ey zohid, muqomirvash
qalandarpeshaye,
Bo‘lma ko‘p mashg‘ul-u dunyo
shug‘lidin qil ijtinob.

Dona o‘ynab vajhin isor etsang andin yaxshikim,
Evurub tasbeh-u yormoq sudin etkaysen hisob.

Qit’a mazmunidan anglashilib turibdiki, N. o‘z davrida qalandarlarga xos bo‘lgan hayot tarzini yaxshi bilgan va she’rlarida buni yorqin ifodalagan.

N. qalandarlik haqiqati va timsollariga keng ahamiyat bergan. She’rlarida qalandarona ishqdan bahs yuritgan:

Ishq aro pok-u qalandarlik kerak,
Shu’la bahrida samandarlik kerak.

N.ning “B.V.” devonida qalandarlik istilohi va tushunchalari b-n bog‘liq alohida yetti baytli g‘azal mavjud:

Qirqib erdi qoshin ul bodaparasti xudroy,
Toza chiqmish, ne ajab, gar desam oni yangi oy.

Qirqqandin iki-uch kun o‘tubon bo‘lmish edi.
Uylakim jangi pay etkaylar ikki dilkash yoy.

Yopti g‘avvosi qazo har biriga mushkin qavs,
Otqali kirpik o‘qin jon bilan ko‘nglum sari, voy.

Koshki xattig‘a yetkurmagay erdi poki
Kim, bu to‘ti bo‘lur ul ko‘zgu bila bolkushoy.

Lo‘li o‘lmoq tong emas, bor esa shahlarg‘a havas,
Gar bu yuz ko‘zgusiga ilgi bo‘lur oyinasoy.

Ne ajab, bo‘lsa yerim kunji qalandarxona,
Kim, qalandarvash erur ul sanami beparvoy.

Ey Navoiy, yetilib qoshi aning, shukur deykim,
Husni qasrig‘a ayon bo‘ldi yana toqi namoy.

Mazkur g‘azalda sevikli yorning qalandarlarga xos bo‘lgan qosh qirish odati b-n bog‘liq jarayonlarning boshdan kechirishi hamda lirik qahramon oshiqning ichki ehtiroslari o‘z ifodasini topgan. N. “N.M.” tazkirasida Shayx Faxruddin Ibrohim Iroqiyning she’riy devoni borligi, “Lama’ot” kitobining muallifi ekani va yoshlikdan ilmda kamolot hosil qilgani haqida aytib, qalandarlik yo‘liga kirib ketish sababini izohlaydi. Qalandarlik yo‘lini tanlagan shayxlardan yana biri Amir Husayniydir. N. uning qalandarlik oqimlaridan biri bo‘lgan “bir suruk javoliqilar bila qo‘shulub, Mo‘lton sori” ketgani va Shayx Ruknidinga murid tushgani haqida hikoya qiladi. Haqiqiy qalandarlar tashqi tomonga emas, botinga, ichki go‘zallikka intilib yashaganlar. Ularning jundan libos, dag‘al xirqa yoki hayvon terisidan bo‘lgan po‘stin kiyib yurganliklari ham ramziy mazmunga ega. N. davrida Hirotda qalandarlar yashaydigan mahalla, joy, ko‘chalar bor edi. Xondamir “Makorim ul-axloq”da N.ning qalandarlar mahallasida hovuz va Qalandaron degan ko‘prik qurdirgani, shuningdek, “Bog‘i Zog‘on” ichida masjidi mahallayi Qalandaron bino qildirgani haqida ma’lumot beradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Абдурауф Фитрат. Машраб // Туркистон. 1991-йил, 2-июль; Абдураҳмон Жомий. Нафаҳот ул-унс-мин ҳазаротил-қудс. – Теҳрон. 1370 (ҳ.-ш); Али Асғар Ҳалабий. Шинохти ирфон ва орифони эроний. – Теҳрон. 1367 (ҳ.-ш); Тримингэм Дж. Суфийские ордени в исламе. – М., 1989; Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Т., 1967; Қаландарномаи Хатиби Форсий “Сийрати Жамолиддин Соважий. – Тус., 1362 (ҳ.-ш); Аҳмад Яшар Ўжақ. Қаландарийлар. XIV–XVI асрлар. – Анқара. 1992; Абу Толиб Мир Обидиний. Ойини қаландарий. – Теҳрон. 1374 (ҳ.-ш); Рафиддинов С. Қаландарийлик ва Навоий шеърияти. Навоийнинг ижод олами. 2-китоб. 2011; Рафиддинов С. Ўзбек адабиётида қаландарийлик ғоялари // ЎТА, 2006, №6.*

S.R.

QALB I – ko‘ngil, dil, yurak, vijdon, aql, ruh, tajalligohi ilohiy, rabboniy latifa. Q. arabiy kalimasining lug‘aviy ma’nosi “biror narsaning shakl va ma’no jihatidan o‘rtasi, asosi demakdir” (Najmiddin Kubro). So‘fiy va mutasavviflar bu “o‘rtaliq”ni inson tirikligi va ma’naviy hayotining bosh manbayi, ma’rifat va irfon markazi, kashf va ilhom oynasi, Haq va haqiqat sirlarining tajalligohi, Allohning taxti deb belgilashgan. “Yer-osmonga sig‘madim, mo‘minning qalbiga sig‘dim”, hadisi qudsiysi inson Q.ining ilohiyligi “Mo‘minning qalbi – Allohning Arshi” ekanligini tasdiqlaydi.

Q.ning haqiqatlari N.ning barcha asarlarida keladi. Jumladan, “N.M.” tazkirasida ham ba’zan muallif, goh valiylar tilidan Q.ning ta’rif-tavsiflari beriladi. Abu Sulaymon debdurki, “ko‘pincha haqiqat (kashf-u asror) qalbimda qirq kunlab uloqib yuradi. Ularni faqat ikki guvoh: oyat va hadis asosidagina qalbimdan joy olishiga ruxsat beraman”. Demak, insonning tirikligi uning Q.i bilandir. Mutasavviflar chinakam kasallik – Q. xastaligi ekanligini ta’kidlashgan. “Qur’onda: “U qalblarda xastalik bordir (Baqara: 2/10)”, – deya ogohlantirilsa, hadisi sharifda: “Inson vujudida shunday bir et parchasi bordirki, u tuzalsa, butun vujud tuzalur, u buzilsa butun vujud buzulur. Bu qalbdir”, – deyiladi. N. asarlarining bosh g‘oyasi ham mana shu xastalikning izohi va da’volaridan iborat. “N.M.”da o‘qiymiz: “Mahfuz b. Muhammad (q.s.) debdurkim, “odamlarning yaxshirog‘i qalbi sog‘lom va musulmonlarga xayrixoh bo‘lganidir... Abubakr Tamastoniy (q.t.s.) debdurki: “qalb tirikligi nafsni o‘ldirish bilandir”.

Ahmad Rifoiy yozadi: “Qalb bir go‘sht parchasidir. Ayni paytda qalb nurlari jamlanadigan joy erur”. Insondagi ilohiy, shaytoniy, nafsoniy, hayvoniy, xullas, barcha hol va xususiyatlar qalbda aksini topar. Shu bois qalb tasfiyaga muhtojdir. Q.ning eng yomon ofati dunyo hirsi, hasad, xusumat va kibrdir. Q.ning atvori (tavri, tabaqoti) yettita: 1. Sadr – ko‘krak, islom javharining o‘chog‘i. 2. Qalb – yurak, imon javharining joyi. 3. Shigof – xalqni sevish, xalq uchun kuyinish joyi. 4. Fuod – ko‘ngil, g‘aybiy mushohada maskani. 5. Hibbat ul-qalb – ilohiy ishq joyi. 6. Suvaydo – g‘aybiy mukoshafa, ilmi laduniy yeri. 7. Muhtajun qalb – ilohiy nurlar zuhurlangan joy. So‘fiylar Q.ning da’vosidan bahs etishib shunday deyishgan: “Har bir narsaning zangi bo‘ladi, qalb nurining zangi esa, to‘yib ovqatlanishdir”. Bu kabi Q. xastaliklari N.ning turli asarlarida keltirilgan. Q.ni tazkiya etish natijasida basirat – Q. ko‘zi ochiladi. N. lirikasida Q. obraz darajasiga ko‘tarilgan. M-n:

Chekti saf kirpiklaring ko‘nglum sipohi ollig‘a,
Sindurur yuz qalbni lekin alarning sanchishi.

Q. kalimasining ko‘pligi – Q.lar, ya’ni Qulubdir. N.ning so‘nggi asari “M.Q.” – “Qalblarning sevgilisi” deya nomlangan.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилдлар. – Т., 2011; Нажмиддин Кубро. Тасаввуфий ҳаёт. – Т., 2011; Нажмиддин Комилов. Тасаввуф. – Т., 2009; Ҳаққул И. Тасаввуф сабоқлари. – Бухоро, 2000.*

Z.R.

QALB II (ar.) Soxta, qalbaki (aqcha), sof emas ma’nolarida keladi. N.ning ham shu ma’nodagi baytlari bor.

Qullug‘ung dog‘in qo‘yub, ko‘nglumni
g‘amdin sotqun ol,
Kim bu naqdi qalbdin ortuq
bahosi yo‘q aning.

Qalbisiym – qalbaki kumush; Qalbi rayandud – usti qoplama, qalbaki, usti yaltiroq, ichi qaltiroq ma’nolarini beruvchi birikmalar ham keladi:

O‘yladurkim, sotibon Yusufni olg‘ay siymi qalb,
Kimki matlubni qo‘yub, mayl etsa dunyo johig‘a.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011.*

Z.R.

QALMOQ – turkiy qabila – urug‘ nomi, etnonim. Tarixiy-adabiy manba va hujjatlarda Q. haqida ko‘plab ma’lumotlar bitilgan. N. asarlarida ham shu ma’noda qo‘llangan. Shoir asarlarida boshqa urug‘-qabila nomlari qatorida uchraydi. N. “N.Sh.” devonida berilgan g‘azallardan birida shunday yozadi:

O‘zbak, mo‘g‘ul o‘lg‘oy aning ollida musulmon,
Bilman ani qalmoqmudur, yo‘q esa tag‘moch.

Ad.: *Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2011.*

B.R.

QANOAT – 1. Q.; boriga sabr qilish, chidash, bardosh berish; 2. Tamasizlik. 3. Befoyda urinmaslik. N. nasriy va nazmiy asarlarida Q. haqida istifoda etgan hadisi shariflaridan biri: “Azza man qana’a va zalla man tama’a min kulli fajjin amiq”, ya’ni “Kimki qanoatli bo‘lsa – aziz bo‘ldi va kimki uzoq yo‘ldan bo‘lsa ham tama qilsa xor bo‘ldi”. Mutafakkir shoirimiz iqtibos san’atiga ko‘ra bir necha o‘rinlarda bu hadisning arabcha so‘zlarini keltirib, Q.ni targ‘ib qiladi va tamadan qaytaradi.

Umar ibn Xattob (r.a.): “Odamlarning qo‘lidagi narsadan umidni uzishda boylik bor, tamada faqirlik bor, uzlatda esa yomonlikka aralashishdan uzilish bor”, – degan ekanlar.

“B.V.”da ta’kidlanishicha, Haqdan azizlik tilagan odam xalqdan tamani uzishi kerak. Chunki xalqning eng aziz insoni Muhammad (s.a.v.) “Qanoat qilgan odam aziz bo‘ladi (azizdir)”, – deb aytgan:

Haqdin azizliq tilasang, eldin uz tama,
Kim xalqning aazzi dedi: “azza man qana”.

“M.Q.”ning yetmishinchi tanbehida ham tama mazammat qilinadi va Q. maqtaladi. N. davom ettirib, Q. “istig‘no sarmoyasi va sharaf-u izzat piroyasi”, bo‘lsa, tama xorlikka dalil bo‘lib, boyni xor va zalil qiladi. Umar ibn Xattob (r.a.)ning: “Bilingkim, tama faqirlikdir. Tama qilmaslik boylikdir”, – degan so‘zlariga hamohang ulug‘ shoir tama qilmaslikni saxovat qilganga o‘xshatadi va bunday saxo ahlini karamli, tama xaylini laim (pastkash, tuban) hisoblaydi. Diqqat qilsak, bu o‘rinda ham tamaning xorlik keltirishini va Q.ning aziz qilishini “Qanoat qilgan odam aziz bo‘ladi (azizdir)”, hadisi orqali eslatib o‘tadi: Bayt:

Xorlig‘lar boshi tama bilgil,
Doimo “azza man qana” bilgil.

N. bir g‘azal baytida rizq Allohdan ekanligiga ishora qilib, taqdiringdagi nasibadan ortig‘ini talab qilib xor bo‘lma, izzat Q.dadir, deb ogohlantiradi. “A.” asarida Q.ni adog‘i yo‘q, tuganmas mol-u mulkka o‘xshatadi. Shuningdek, “N.J.”ning bir necha o‘rinlarida Q. mavzusiga to‘xtab o‘tilgani ham bu mavzuning inson hayotida muhim o‘rin tutishidan darak beradi. Ulug‘ mutafakkir bu asarida hirsni – mol-dunyoga o‘chlikni Q. olovi b-n yoqib tashla, uni yo‘qlik ipiga taqib qo‘y, desa boshqa o‘rinda Q.ni xursandchilik manbayi deb ko‘rsatadi. Ayniqsa, tarki tama qilib, “hokimi davron” va Q. qilib “sulton” bo‘lishga da’vat etadiki, bu yana bir bor tamaning xor etishidan va Q.ning aziz qilishidan darak beradi:

Tarki tama ayla, hokimi davron bo‘l,
Ya’niki qanoat aylavu sulton bo‘l.

N. tamaga yo‘l bermaslikning muhimligini va Q.ga odat qilishni, ayniqsa, “M.Q.” asarida ibratli hikmatlar, baytlar va rivoyatlar orqali ochib beradi. U mazkur asarining ikkinchi qismida hamida af’ol (maqtalgan, tahsinga sazovor bo‘lgan fe’l-odatlar)dan bo‘lgan: tavba, zuhd, tavakkul, qanoat, sabr, tavoze va adab, zikr, rizo, tavajjuh va ishq mavzularini 10 ta bob doirasida birma-bir sharhlab, fazilatli jihatlarini ochib beradi. Jumladan, to‘rtinchi bobda Q. haqida ham shunday nodir fikrlarni bildiradi: “Qanoat ibodatga yetgudek quvvat hosil bo‘lguncha yeb-ichib kun o‘tkazmoqdir va boshqa barcha hoy-u havaslarni xayoldan chiqarmoqlikdir. Va benavoliq bilan nafsni qiynamoq va shahvoniy hislarni rad etish bilan chalajon qilmoq. Qanoat bir chashmadurkim, suvi olingan b-n qurimaydi va bir xazinadurki, sochilgan b-n kamaymaydi. U bir ekinzorki, urug‘i izzat va shavkat hosilini berar va daraxtdurki, shoxi ehtiyojsizlik va hurmat keltiradi. Qanoat inson ko‘ngliga ravshanlik keltiradi va ko‘z undan yorug‘lik kasb etadi...” N.

bir o‘rinda “Qanoatli darveshning quruq noni, tamagir shohning noz-ne’mat to‘la dasturxonidan yaxshiroqdir”, desa, boshqa bir joyda Q.ni nafs yomonligidan qutqazadigan qo‘rg‘onga, urug‘i boylik bo‘lgan ekinga, mevasi muhtojlik keltirmaydigan daraxtga, nash’asi shodlik bo‘lgan achchiq mayga, manzili quvonchli bo‘lgan qattiq yo‘lga o‘xshatadi. N. Q.ni xalqni qanoatsizlik va tamagirlik balosidan qutqaradigan va bunday ofatdan xalos etadigan bir javharga o‘xshatadi. U bob oxirida insonlarni o‘ylantiruvchi, hushyorlikka chaqiruvchi quyidagi hadisi sharifni keltiradi. Muxbiri sodiq (rost xabar olib keluvchi) Muhammad (s.a.v.) shunday debdurlar: “Alloh qanoatni aziz qilgan bandasiga, tamani esa xor qilgan bandasiga beribdur”.

Mazkur bob oxirida Ziyoratgohiy haqida hikoyat keltiriladi: Q. tufayli u ulug‘ maqomga erishgani, e’tibor va hurmatga sazovor bo‘lganini hayotiy bir tarzda tasvirlaydi: Hirot sultonlari din ulamolari va tariqat mashoyixlari Shayx shoh Ziyoratgohiyning huzuriga borib, ostonasining tuprog‘ini o‘pish b-n faxrlanar va uning ekkan bug‘doyidan bo‘lgan nondan va dasturxonidagi mevalardan qo‘llariga tushganini olib, ko‘zlariga surtib, qo‘yinlariga solib, tabarruk bilib, ahli ayollari va bolalariga berar edilar. Va undan yeganlar jannatdan umidvor bo‘lar edilar... N. hikoyasini: “Qanoat natijasi bundan ortiqroq bo‘lmaydi va xursandlik bog‘chasining rayhoni bundan tarovatliroq bo‘lmaydi”, – deb bir qit’a bilan yakun yasaydi. Qit’a:

Jahon ichra ko‘p sun’ ko‘rguzdi sone’,
Emasdur kishi turfa andoqki qone’.
Kishidin talabsiz g‘ino hosil etmas,
Yana judg‘a bo‘lmamoq hech mone’.

Maz.: Yaratuvchi Parvardigor jahonda ko‘p ajoyib narsalarni yaratdi. Lekin qanoatli kishidan ko‘ra ajabtovurroq kishi yo‘qdir. Zero, qanoatli kishi mehnat qilmasdan, talab qilmasdan boy bo‘ladi, hatto saxovat qilishiga ham hech mone’-lik bo‘lmaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, N. yuksak axloq murabbiysi va muallimi sifatida asarlarida insonni xor qilguvchi tamadan qutulishga va uni aziz etguvchi Q.ni egallashga va hayotda tatbiq etishga undaydi.

Ad.: *Алишер Навоий. ТАТ. 10 жилдлик, 1-10-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. Ҳозирги ўзбек тилига табдил. Т., 2018; Абу Ҳомид Ғаззолий. Кимиёи саодат. – Т., 2005; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4-жилдлик, 3-жилд. – Т., 1984.*

S.R.

“QANOAT GO‘SHASIN TUTQILKI...” – N.ning “G‘.S.” devoniga kiritilgan qit’a:

Qanoat go‘shasin tutqilki, chun anqo bu
da’b etti,
Anga qushlar ichinda qurb Qofida nishimandur.
Chu parvoriy tovug‘ning og‘zi tinmas
tu’madin garchi,
O‘lar oxir anga avval katak zindoni maskandur.

Hazrat N. “M.Q.”da: “Qanoat bir qo‘rg‘onki, unga kirsang, nafsning g‘alvasidan qutulasan”, – deydilar. Qal’ada esa “Qanoat go‘shasi”ga rag‘batlantirilgan. Lekin bu go‘shaga chorlashdan ham murod o‘sha: nafs g‘alvasidan qutulib, do‘st-dushmanga muhtojlikdan ozod, xoksorlikda yashashga tashviq etmoqdir.

Rivoyatlarga ko‘ra, Anqo – nomi bor-u o‘zi yo‘q afsonaviy qush. U go‘yo qushlarning podshohi bo‘lib, Qof tog‘ida yasharmish. Qit’ada aks ettirilgan mantiqqa binoan, Anqoning Ko‘hi Qofda muqim turishi go‘yoki qanoat go‘shasiga sodiqlik odatidir. Ayni shu xislati tufayli uning qismatida barcha qushlar b-n yaqinlik bitilgan. Uning uyasi ham “qurb qofi” – yaqinlik tog‘ida. Bu Anqoning qushlar podshohi ekanligiga ishora. N. ko‘z o‘ngida qanoatli kishi – Anqosifat. Anqo esa qanoatli odam timsolida gavdalangan.

Chu parvori tovug‘ning og‘zi tinmas
tu’modin garchi,
O‘lar oxir anga avval katak zindoni maskandur.

N. mana shu so‘zlarni yozmaganida, biz qanoatli odamlar b-n tamagir kimsalar o‘rtasida bu qadar farq, tabiatan keskin tafovut mavjudligini aniq tasavvur qilolmagan bo‘lardik. Darhaqiqat, tovuqni qancha parvarish qilsangiz, uning og‘zi o‘shancha tinmaydi. Ammo u sho‘rlikni tama xirsi shu darajada mag‘lub qiladiki, hurligini butunlay unutadi. U qamalgan katak hurlik maskanimas, zindon. Tama tuyg‘usining o‘zi ham bir zindondir. Bu tasvirdan so‘ng she’rxon tamagir zotlarni katakdagi tovuq qiyofasida ko‘rganday bo‘ladi. Va bunday qullikning ildizlarini o‘zicha kengroq tekshirgisi keladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ҳаққул И. Касби камол ўзни танишдир. – Т., 2021.*

I.H.

“QANOAT TARIQIG‘A KIR...” – N.ning “G‘.S.” devonidan o‘rin olgan qit’a:

Qanoat tariqig‘a kir, ey ko‘ngul,
Ki, xatm o‘lg‘ay oyini izzat sanga.

Desang shoh o‘lay yer-u ko‘k basdurur,
Bu bir taxt-u ul chatri rif’at sanga.

Fano shu’lasida yoshur jismni,
Kerak bo‘lsa zarbaft xil’at sanga,

Yetar lola butkan qoya qullasi,
Murod o‘lsa gulgun hashmat sanga.

Erur bas, arig‘ nuktavu qon yoshing,
Dur-u la’ldin zeb-u ziynat sanga,

Desang xilvatim anjuman bo‘lmasun,
Kerak anjuman ichra xilvat sanga.

Vatan ichra sokin bo‘lub soyir o‘l,
Safardin agar bo‘lsa mehnat sanga,

Nazarni qadamdin yiroq solmag‘il,
Bu yo‘l azmi gar bo‘lsa rag‘bat sanga.

Damingdin yiroq tutmag‘il hushni,
Ki yuzlanmagay har dam ofat sanga,

Bu to‘rt ish bila rub’i maskun aro,
Chalinmoq ne tong ko‘si davlat sanga,

Bu ohang ila bo‘lg‘asen naqshband,
Navoiy, agar yetsa navbat sanga.

N.ning “L.T.” dostonida bir hikoyat keltiriladi. Unda haqni biladigan va bu borada qiyossiz bo‘lgan mo‘tabar bir zot haqida fikr yuritiladi. Nihoyatda kamtar inson azbaroyi xoksorligidan o‘zini har narsadan kam ko‘radi. Kunlardan birida shu haqshunosning ko‘ziga xasta it ko‘rinib qoladi. Va u kishi kutilmaganda ko‘zlariga yoshlar olib deydi: “Bu it vafodorlar toifasidandur. Men esa bundoq emasman. Vafo va sadoqatda o‘zimni unga teng deb aytolmayman...”. Ushbu so‘zlarni eshitgan it go‘yoki tushunganday u odamning oldidan yo‘l solib, o‘tib ketadi. Itning tuproq ustidagi oyoq izlarini ko‘rgan haligi zot yer o‘pib, ularga ko‘zlarini surta boshlaydi. Bundan uning vafosizlikka etak silkib, vafodorlikka sajda etayotganligi anglashiladi.

Bu hikoyat Xoja Bahouddin Naqshband to‘g‘risidadir. N.ning yuqoridagi qit’asi naqshbandiylik tariqatining tub mohiyati va uning asosiy falsafiy-axloqiy shartlarini sharhlashga bag‘ishlangan. Birinchi bayt:

Qanoat tariqig‘a kir, ey ko‘ngul,
Ki, xatm o‘lg‘ay oyini izzat sanga.

Ma’lum bo‘layotirki, hazrat N. ta’rifiga ko‘ra, naqshbandiylik tariqi – qanoat maslagi. Ulug‘ shoir “X.”da: “Shoh ul emaskim boshig‘a qo‘ydi toj, shoh ani bilkim yo‘q anga ehtiyoj”, – dey-

dilar. Mana shunday ehtiyojsizlikning nomi qanoat. Qanoat yo‘li – izzat yo‘li. Qanoat sohibi uchun qaramlik emas, hokimlik xosdir. Uning shohligi ruhan yer-u ko‘kni egallash kamolotidir. Unga yer bir taxt bo‘lsa, ko‘k – chatri rif’at, ya’ni yuksaklik chodiridir:

Desang shoh o‘lay yer-u ko‘k basdurur,
Bu bir taxt-u ul chatri rif’at sanga.

Butun borlig‘i b-n yer-u ko‘kka uyg‘unlashib ketmoq shavqida yongan shaxs, shak-shubha yo‘qki, vujudini zarbof to‘nlar b-n yasantirib yurishdan behad baland turadi. Shuning uchun u jismini ham yo‘qlik nurlari (aslida bu inson mavjudligini abadiylashtiradigan ilohiy shu’la) b-n yopardi. Shoir shu falsafiy tushunchaga asoslanib:

Fano shu’lasida yoshur jismni
Kerak bo‘lsa zarbaft xil’at sanga, –

deydi.

Fanolik shu’lasidan zarbof kiyim kiyish – tabiat b-n birikish demakdir. Shuni hisobga olib shoir qit’aning keyingi baytlarida qanoatli odamning oliy murodi va zeb-u ziynati nima ekanligini izhor etadi:

Yetar lola butgan qoya qullasi,
Murod o‘lsa gulgun hashmat sanga.

Erur bas, arig‘ nuktavu qon yoshing,
Dur-u la’ldin zeb-u ziynat sanga.

Maz.: Qanoat tariqiga kirgan zotning ulug‘ e’tibor yoki dong taratishga urinishiga hojat yo‘q. Agar u gulgun dabdabalarni havas qilgan bo‘lsa, tog‘ yonbag‘rlarida ungan lolalar unga yetarli. Dur-u la’ldan zeb-u ziynatli bo‘lmoq, istagi u-n esa pokiza ma’noli so‘z va qonli ko‘zyoshlarning o‘zi kifoyadir.

Pokiza so‘z va ma’nolar qanday tug‘iladi? Dard va muhabbatdan. Ko‘zdan oqqan qonli yoshlarning irmog‘i – shavq va iztirob. Ishqsiz kimsalarning diydasidan dur-u la’lga aylanajak yoshlar emas, toshlar to‘kiladi. Demak, Naqshbandiy tariqatining falsafiy-axloqiy zamini Ishq. Bu ta’limotga ko‘ra qanoat nuri, shukuhi – muhabbatdir. N.ning boshqa bir asarida yozilishicha, Naqshbanddan: “Sizning janozangizda qaysi oyatni o‘qusinlar?”, – deb so‘raganlarida, u kishi: “Bu baytni o‘qusunlar:

Chist az in xo‘btar dar hama ofoq kor,
Do‘st rasad – nazdi do‘st, yor – ba nazdiki yor”

Tarj.: Dunyoda do‘st do‘stning qoshiga yetishishi, yor-yorga yaqinlashishidan yaxshiroq nima bor?.

Naqshbandiy dunyoqarashi botinan (ichdan) Xudo b-n, zohiran (tashqaridan) odamlar b-n bo‘lish kerakligini yoqlaydi. Uning aqidasi bo‘yicha, “dil ba yor-u, dast ba kor”, yurak Xudo b-n bo‘lib, qo‘l mehnatdan ajralmasligi kerak. Zotan, mehnat-mashaqqatsiz chaynalgan har qanday rizq va narsa ham haromdir. Nashqbandiy tariqatiga binoan mana bunday shartlarga rioya etmoq joiz. Ularning birinchisi “xilvat dar anjuman”, deyiladi. Ikkinchisi – “safar dar vatan”. Uchinchisi – “nazar dar qadam”. To‘rtinchisi – “xush dar dam”.

“Xilvat dar anjuman”ning mohiyati – el-ulusdan ajralma, mayli, yolg‘iz bo‘l, lekin odamlardan qochma, anjumanning ichida xilvatingni top, deganidir. Hazrat N. buni qit’ada quyidagi shaklda bayon etadilar:

Desang xilvatim anjuman bo‘lmasin,
Kerak anjuman ichra xilvat sanga.

Maz.: uzlatda ulusdan yiroqlashmayman desang, anjuman ichra xilvat izla.

Inson umrining mazmuni, bundoq qaralganda, hayotga, tabiat, jamiyat, qolaversa, dunyoga safardir. “M.Q.”da N. safarning foydalari xususida yozadilar: “Turg‘un yer qayda-yu, aylanuvchi osmon qayda? Bir joyda turgan tuproq qayda-yu, sayr etib yuruvchi yulduz qayda? Safar

ayriliqqa uchraganlarni maqsadga yetkazuvchi va mahrumlarni murod uyiga olib kiruvchidir. Safar xom odamlarni pishiruvchi va taomlarni singdiruvchidir. Safar – kishilarni olam ajoyibotlaridan bahramand etadi, g‘aroyibotlar dunyosidan xabardor qiladi...”. Shuning u-n uning olam va odam harakatlaridan ajralib yashashga haqqi yo‘q. Kishining insoniyligini belgilaydigan bosh mezon esa tug‘ilishidanoq Vatanini tanishidir. Bu – Vatanga safardir. Buni shahar va qishloqlar, bog‘-u sahrolarni kezish debgina tushunish kerak emas, albatta. Vatanga safar – ona yurt tarixi, buguni va kelajagiga sayohat. Naqshbandiyning “Safar dar vatan” degan tushunchasini mana shunday miqyoslarda qabul etish zarurdir. Aks holda u yuzaki bir da’vatga o‘xshab qoladi. Uni N. talqinida o‘qiymiz:

Vatan ichra sokin bo‘lub soyir o‘l,
Safardin agar bo‘lsa mehnat sanga.

Maz.: Safar-u sayohatlardan charchasang, ular senga zahmat va mashaqqatlar tug‘dirsa – Vataning ichra sokin va osuda yasha, lekin soyir bo‘l. Odam qanday qilib ham sokin-u, ham soyir, sayohat etuvchi bo‘la oladi? N. bunda insondagi xayol sayohati, ruh va yurak safarlarini ham e’tiborda tutganlar.

“Nazar dar qadam” – mas’ullik o‘z-o‘ziga javobgarlik qat’iyatidir. Naqshbandiy bunda odamning bosayotgan har bir qadamidan maqsad nima ekanligini anglashi, insonning bironta odimi ham izsiz qolmasligi, yurilayotgan yo‘llar qaysi manzillarga olib borishini idrok etish zaruriyati kabi aql faolligini talab qiladigan masalalarni mujassamlashtirgan. N.da bu haqiqatlar ifodasi mana bunday:

Nazarni qadamdin yiroq solmag‘il,
Bu yo‘l azmi gar bo‘lsa rag‘bat sanga.

“Xush dar dam”ning muxtasar ma’nosi – har dam va nafasingni xush o‘tkaz. Bu nekbinlik umrni ardoqlashga o‘rgatuvchi falsafadir. Agar kishi dam-u nafasidan aql-u hushini yiroq tutmasa, unga hech qanday ofat yuzlana olmaydi, deb uqtiradilar bobomiz:

Damingdin yiroq tutmag‘il hushni,
Ki yuzlanmagay har dam ofat sanga.

N. ushbu fikrlar bayonidan so‘ng quyidagi umumiy xulosani chiqarganlar:

Bu to‘rt ish bila rub’i maskun aro
Chalmoq ne tong ko‘si davlat sanga.
Bu ohang ila bo‘lg‘asen naqshband
Navoiy, agar yetsa navbat sanga.

“Bu to‘rt ish” – yuqorida izohlaganimiz, naqshbandiylik tariqatining to‘rt sharti, N.ning e’tiroflaricha, shu to‘rt shartni ado etgan kishi “rub’i maskun” – yer yuzida ulug‘ davlatga erishadi (yoki davlat nog‘orasini chaladi).

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ҳаққул И. Касби камол ўзни танишдир. – Т., 2021.*

I.H.

QARIB (ar. – yaqin) – mafoiylun (1-hijo qisqa, qolgan hijolar cho‘ziq – V – – –) aslining 2 marta va foilotun (2-hijo qisqa, qolganlari cho‘ziq – – V – –) aslining 1 marta takrorlanishidan hosil bo‘ladigan bahr (mafoiylun mafoiylun foilotun – V – – – / V – – – / – V – –). Muzore’ bahriga yaqin bo‘lgani u-n shunday nomlangan. Bu bahrni Yusuf Nishopuriy ixtiro qilgani aytiladi. U arab she’riyatiga xos bo‘lib, o‘zbek adabiyotida qo‘llanmagan. N.ning “M.A.” asarida ham, Boburning “Muxtasar”ida ham Q.i musaddasi solim vazniga:

Jamoling quyosh asr-u bor uyotliq,
Sochingga banda bog‘ ichra sunbul otliq, –

bayti misol sifatida keltiriladi. Bobur bundan tashqari yana 13 vaznni misollari b-n ko‘rsatib o‘tadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Бобур. Мухтасар. – Т., 1971; Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т., 1998; Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2010.*

E.O.

“QARILAR XOTIRI NOZIKDUR...” – N. ning “G‘.S.” devonidan o‘rin olgan qit’a:

Qarilar xotiri nozikdur, ey tifl,
Shikastidin qilib vahm, o‘lma gustoh.
Unuttungmuki, atfol o‘ynog‘onda,
Sinar oz mayl ko‘rgondin quruq shoh.

Mutaxassislar o‘tkazgan tajribalardan ayon bo‘lishicha, odam qariganda, keksayib yashashga ko‘nikkan sayin o‘limni bo‘yinga olishi qiyinlashar ekan. O‘lim g‘oyasini yoshlar keksalarga qaraganda osonroq qabul qilib, uni qarshilashda qarilarga nisbatan matonatliroq bo‘lisharmish. Bu ma’lumot balki to‘la to‘g‘rimasdir. Balki kimdir undan: “Inson umrining uzayishi oxir-oqibatda undagi xudbinlikning ulg‘ayishi”, – degan xulosa chiqarar. Lekin aslida bu tuyg‘u ham hazrat N. ta’kidlagan, qarilik xotirasining noziklashuvidir. Bobomiz qarilar xotirining nozikligi to‘g‘risida shunchaki xabar bermaganlar. Shu gapga tayanib, bolalarni andisha va hushyorlikka chaqirganlar. Lekin dastlabki ikki satrdagi fikr quruq nasihat tarzida qolib ketmasdan, u tamsil san’ati orqali isbotlangan.

Bolalarning shoxo‘yinlari b-n mashg‘ul bo‘lishlari hayotdagi mavjud hodisa. Hazrat N. buni o‘z g‘oyaviy maqsadiga muvofiqlashtirib, “quruq shox” b-n qarilar xotiri o‘rtasida o‘xshashlik topadilar. Ya’ni, quruq shox bola qo‘lida salga singanidek, qari kishilarning qalbi ham bolalar tomonidan sodir etilgan ozgina andishasizlik va odobsizlikdan shikast ko‘radi.

N. “M.Q.”da yozgan: “Qarilik yoshlik mayiga xumorlikdir, yigitlikdagi sog‘lomlikni hasrat-la qumsashlikdir. Qarilik kunlari shod yurgan odamlarni noshod etadi: kishi qadrini bukchaytirib... hasrat va nadomat yoshining seli badan qasri devorini yiqadi... Qarilarning parishonligiga, ularning hilvirab borishini bolalar masxaralaydi”. Qit’a ana shunday masxaralashga qarshi qaratilgan so‘z hamdir.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ҳаққул И. Касби камол ўзни танишдир. – Т., 2021.*

I.H.

“QARO KO‘ZUM KELU...” – N.ning “G‘.S.” devoniga kiritilgan mashhur g‘azali:

Qaro ko‘zum kel-u mardumlug‘ emdi fan qilg‘il,
Ko‘zum qarosida mardum kibi vatan qilg‘il.

Yuzung guliga ko‘ngul ravzasin yasa gulshan,
Qading niholig‘a jon gulshanin chaman qilg‘il.

Takovaringg‘a bag‘ir qonidin hino bog‘la,
Itingg‘a g‘amzada jon rishtasin rasan qilg‘il.

Firoq tog‘ida topilsa tufrog‘im, ey charx,
Xamir etib yana ul tog‘da ko‘hkan qilg‘il.

Yuzung visolig‘a yetsun, desang, ko‘ngullarni,
Sochingni boshtin-ayog‘ chin ila shikan qilg‘il.

Xazon sipohig‘a, ey bog‘bon, emas mone’,
Bu bog‘ tomida gar ignadin tikan qilg‘il.

Yuzida terni ko‘rub o‘lsam, ey rafiq, meni
Gulob ila yuv-u gul bargidin kafan qilg‘il.

Navoiy anjumani shavq jon aro tuzsang,
Aning boshog‘lig‘ o‘qin shami anjuman qilg‘il.

Bir donishmanddan: dunyoda eng kuchli lazzat nima? deb so‘raganlarida, u: so‘z lazzati, so‘z san’atidan huzurlanish, deb javob bergan ekan. Ammo mo‘jizalar mo‘jizasi badiiy so‘z lazzatini

tuyib, ruhiy halovat olish uchun uni chuqur idrok etmoq, asar ma’nolarining butun nozik jihatlarini qat-qatigacha tushunib yetmoq lozim. Ayniqsa, so‘z san’atini g‘oyat baland qadrlagan va til, uslub tomonidan bizdan ancha uzoqlashib qolgan klassik shoirlarimizning majoz va istioralar, o‘ziga xos yo‘sinda pardalangan ma’nolarga boy asarlarini tushunish, o‘qib-uqish xiyla qiyinchiliklar tug‘dirayotgani sir emas. Jumladan, ulug‘ N. asarlari ham. Olimlarning tadqiqotlari, “X.” dostonlarining nasriy alohida nashrlar uchun tuzilgan izohlar, “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati” mushkulimizni bir qadar osonlashtirgan bo‘lsa-da, lekin buyuk shoirning “ma’nolar xazinasi”ni kashf etish, uning bemisl san’at sirlarini ochib, she’riyat ixlosmandlarini undan bahramand qilish ehtiyoji batamom qondirilgan emas. Ammo To‘ychi hofiz Toshmuhammedov XX asr boshida ushbu g‘azalni “Ushshoq” kuyiga solib kuylagandan keyin u “Qaro ko‘zim” nomi b-n mashhur bo‘lib ketadi. Aytishlaricha, hofizning yosh bir farzandi bevaqt olamdan o‘tgandan keyin ushbu g‘azalni qo‘shiq qilib kuylagan, o‘zining dard-u hasratini kuyga solib, nola qilgan ekan. Ha, qo‘shiq hofizning ilohiy ovozi bilan g‘oyat ta’sirchan jaranglaydi, N. so‘zlari yurak qatlariga singadi. Shoirning so‘fiyona ma’nolarini anglagan odamga To‘ychi hofiz ushshog‘i yana ham kuchliroq ta’sir etadi. Zero, “ushshoq” oshiqlar degani, ya’ni oshiqlarning ishq dardi, ayriliq va sadoqat izhoridan hosil bo‘lgan tuyg‘ulari nolasi, falakka o‘rlagan fig‘on bu. “Ushshoq” “Shashmaqom” kuylaridan. “Shashmaqom” so‘fiylar maqomotining musiqaviy ifodasi. Demak, ushshoq Ilohga intilgan ruhning nolalaridan biri.

Modomiki, Sa’diy, Hofiz, N. zamondoshlari uchun g‘azalni baytma-bayt, misrama-misra, hattoki so‘zma-so‘z “maydalab” tushuntirish lozim bo‘lgan ekan, bizga bu yana ham muhimroq va zarurroqdir. Bu g‘azal quyidagicha boshlanadi:

Qaro ko‘zum, kel-u mardumlug‘ emdi fan qilg‘il,
Ko‘zum qarosida mardum kibi vatan qilg‘il.

Darhaqiqat, ushbu g‘azalda oshiqning yetuklik va kamolot timsoli komil insonga muhabbati ifodalanadi. Tasavvuf lug‘atlarida ko‘z komil inson timsoli deb sharhlanadi, chunki u faqat o‘zgalarni ko‘radi, o‘zini esa ko‘rmaydi. Agar yuz ilohiy zuhurot ramzi bo‘lsa, ko‘z shu zuhurotni jamlagan manba mazhari – komillikning ramzi. Ko‘zni sevish orqali ilohiy jamolni sevish ifodalanadi. N. qahramoni ana shu insonni o‘z ko‘zining gavhariga aylantirmoqchi – qalb chirog‘i etmoqchi bo‘ladi. Shoir ishlatgan so‘z o‘yinlari ham shunga yo‘naltirilgan: “mardum” ko‘z qorachig‘i va insoniylik ma’nosida keladi, “fan” odat, o‘rganish va tadbir.

Shunday qilib, baytning mazmuni: “Qora ko‘zlugim (go‘zal yorim), kel endi, odamiylik muruvvatini rasm qilgin (o‘rganib ol); ko‘zimning qorachig‘iga (gavhariga) gavhar (qorachig‘) kabi o‘rnashgin (maskan tut)” Alhosil: “qora ko‘zligim, kelgin-da, lutf-shafqat, vafo rasmini tuz (vafoli bo‘l), men uchun sen ko‘z qorachig‘iday azizsan, joying ko‘zim ichida”. Demak, komil inson, piri komil N. uchun eng aziz, eng mahbub, eng qadrli va uni ko‘z qorachig‘iday asrashga intiladi, unga talpinadi, butun vujudi bilan shu vujudga singib ketmoqchi bo‘ladi. Bunday baytlar klassik tanqidchilikda shoirlik mahoratining baland namunasi husni matla’ (shohbayt) deb baholangan.

G‘azalning ikkinchi bayti:

Yuzung guliga ko‘ngul ravzasin yasa gulshan,
Qading niholig‘a jon gulshanin chaman qilg‘il.

Bu baytda so‘z o‘yini, majoz yo‘q, ammo birbiriga vobasta bo‘lgan 4 ta istiorali birikmadan foydalanib, o‘ziga xos bir iltijo ohangini kuchaytiruvchi zarofatli tasvir hosil qilingan. Bular: yuzing guli, ko‘ngil ravzasi (ko‘ngil bog‘i), jon gulshani iboralari. Gul, bog‘, nihol, gulshan, chaman o‘zaro aloqador tushuncha-obrazlar. Shuning u-n mazkur baytni tushunish uncha qiyinchilik tug‘dirmaydi, voqean ko‘rilgan obrazlar hozirgi she’riyatda keng ishlatilmoqda. Biroq shunga

qaramay, N.ning bu satrlari ham ichki ramziy ma'nodan xoli emas. Qo'llanilgan iboralar faqat bir ma'noni ifodalaydi, desak xato qilamiz. Chunonchi, "Qading niholig'a jon gulshanin chaman qilg'il", deganda N. ko'rinib turgan zohiriy ma'no bilan birga, arab yozuvining xususiyatidan foydalanib, ("jon" so'zi arabcha yozilganda, alif harfi o'rtada keladi), qading alifday jon ichida bo'lsin, degan ma'noni ham qistirib ketgan. Shu singari, "ko'ngil bog'ini gulshan qilish" deganda, xursandchilik (ko'ngilning yor yuzini ko'rib gulday ochilishi) va buning teskarisi dard-mahzunlik (ishq iztirobida ko'ngil yaralarining yallig'lanishi) ma'nolari mujassam.

Alhosil: Ey yor, ko'nglimning bog'ini yuzingning guli uchun gulshan qil, jonimning gulshanini esa qading niholi uchun chaman qilgin" yoki: "Mening ko'nglim, qalbim sening gul yuzing yashnab turadigan gulshan bo'lsin, qading niholi jonim o'rtasida alifday tursin". Yoxud: "Sening gulday yuzingning joyi mening ko'nglim, u ko'ngil yaralariga davo, u qalbim gullarini yashnatadi. Go'zal surating, baland, zebo qomating jonim ichida, bu yerni o'zingga makon qil".

Bu baytning so'fiyona ma'nosi esa quyidagicha: boya birinchi baytda ko'z komil inson timsoli, dedik. Qad esa (shu kabi alif ham) komil inson haykalidir. Yuz, aytganimizday, ilohiy go'zallik mazhari. Endi "yuzning guli" mazharining porlashi, yashnashi, ko'ngul ravzasi (bog'i) oshiqning Yorga intizor qalbi. Shunday ekan, shoir komil insonning porlagan nuri qalbimga kirsin, ya'ni Yor yuzining gulini ko'ngil bog'iga o'tqazib, gulshanga aylantiray, deydi. "Gulshan" esa bu yerda pir yoki komil inson so'zi, diydoridan qalbning yashnab ketishini anglatadi.

2-misrada birinchi misradagi ma'no kuchaytirilgan: komil inson haykali ham jon ichida bo'lsin ma'shuqa obrazi qalbda naqshlansin. Uchinchi:

Takovaringg'a bag'ir qonidin hino bog'la,
Itingg'a g'amzada jon rishtasin rasan qilg'il.

Takovar – tez yuradigan, yo'rg'a ot. Ma'shuq uni minib, sayrga chiqqanda oshiq dardi badtar ortadi, bezovtalanadi. Ot va uning suvoriysi sarkash, bebok, beparvo. Bu an'anaviy tasvir har xil ko'rinishda klassik she'riyatda tez-tez uchrab turadi. Biroq ana shu an'anaviy obrazlarni N. xalq ichida tarqalgan xina qo'yib, yasanish odati bilan bog'lab chiroyli, zavqli poetik ma'noni yuzaga chiqara olgan. Xina qo'yish Sharq xalqlari, jumladan, o'zbek xalqi orasida qadimiy udum. Ayniqsa, qiz-juvonlar, kelinlar shodiyona kunlari qo'l-oyoqlari, yuzlariga xina qo'yib yasanganlar, bu shodlik va xursandchilik qilish belgisi hisoblangan. Xina maxsus o'simlik bargidan olinadi. Barg quritilib, yaxshilab suvga aralashtiriladi va bayram arafasida kechqurun qo'l-oyoqlarga (kaftga, barmoqlarga), sochga bog'lanadi. Ertalab turganda, xinoning to'q qizil rangi badanga ko'chadi va uzoq saqlanib turadi. N.ning lirik qahramoni esa o'z ma'shuqiga murojaat qilib, o'ziga emas, balki otiga oshiqning bag'ir, ya'ni jigar qonidan xino bog'lashni iltijo qilib so'raydi. Chunki u yorini shu darajada sevadiki, uning har qanday jafosiga chidashga tayyor, yo'q-yo'q, bugina emas, u yorga yolvorib, xokisor oshiqni azoblash, qiynoqlar girdobiga olishni tilaydi. Axir, yor qiynoqlari oshiq uchun huzur-halovat-da! (Xino gul, gulshan so'zlariga hamohang bo'lib, so'fiyona tasvir ham o'zaro bog'langan). Ikkinchi misra iboralari ham shunga tutashib ketadi: ishq dardi iztirobidan ingichkalashib qolgan jon ipidan (rishtasidan) arqon yasab (rasan arqon) ma'shuq iti bo'yniga bog'lashni xohlaydi. Oshiq sadoqati shunday bo'lishi kerak. U yor iti bilan suhbat qurishdan or qilmasligi, unga ham dil rozi ishqni so'ylashi, uni quchoqlab o'pishi (Majnun Layli itini og'ushiga olganday) va, hatto, unga jon qilishi mumkin. N. ana shunday sadoqat timsolidan ilhomlanib, yoriga muhabbatini mubolag'a avjida izhor etadi. Xullas, baytning umumiy ma'nosi bunday: "Ey yor, sarkash, yo'rg'a otingning oyoqlariga qiynalib, ozurda bo'lib qolgan jon ipini itingning bo'yniga arqon qilib bog'la".

To‘rtinchi bayt:

Firoq tog‘ida topilsa tufrog‘im, ey charx,
Xamir etib yana ul tog‘da ko‘hkan qilg‘il.

Ko‘rib o‘tilgan oldingi uch baytda lirik qahramon o‘z sadoqatini bildirib, iltijo-yolvorish ohangida yorga murojaat qilgan bo‘lsa, to‘rtinchi baytga kelib, u falakka (charx – falak, osmon) qarab, nola-fig‘on b-n muhabbat qudratidan jo‘shib gapiradi. Lekin shunisi borki, mazkur bayt mazmunan avvalgi baytlardan butunlay uzilgan emas. Zero, bunda ham ishq va oshiqlik suluki, fidoyi qalbning talpinishlari kuylangan. “O‘q so‘zlar” bu yerda firoq tog‘i va ko‘hkan bo‘lib, bular Farhodning fojiali taqdiriga ishoradir. Firoq tog‘i eng og‘ir ayriliq, ulkan dard; ayriliqda Shirin yodida jon bergan Farhodning maskani. Farhod esa ilohiy ishqda sadoqat ko‘rsatish, o‘rtanish, anduh va hajr tajassumi. N. “F.Sh.” dostonida Farhod ismiga ramziy ta’rif berar ekan, uni Firoq, Ranj, Hajr, Oh va Dard so‘zlarining birinchi harflaridan tarkib topgan, deydi.

Ko‘hkan ham Farhodning laqabi. Bu so‘zning lug‘aviy ma’nosi tog‘ kesuvchi, tog‘ qazuvchi demak. Lekin adabiyotda Farhod laqabi sifatida yoki Farhod ismi o‘rnida istiora-simvol bo‘lib tarqalgan. Chunki tog‘ kesib, ne-ne mashaqqatlar b-n ariq qazib, suv chiqarib (Nizomiy sut oqizadi), Shirin orzularini ushaltirgan, ammo murodiga yetmagan oshiq Farhoddir. Hosili kalom, shoir odamning loydan yaralganligi haqidagi afsonaga suyanib, deydi (baytning mazmuni): “Ey falak, ayriliq tog‘ida (ya’ni Farhod jon bergan joyda) mening jasadimning tuprog‘ini agar topsang (chunki men ham Farhod kabi ishq yo‘lida tuproqman), uni qayta qorib, yana o‘sha ko‘hkan Farhod, ya’ni fidoyi oshiq odamni yaratgin”. Yoki: “Mening ishqdagi dardim Farhod dardi bilan barobar, balki undan ortiq ham. Agar men ma’shuq ishqi yo‘lida jon bersam, tuprog‘imni yangidan qorib odam yaratsalar, tag‘in Farhod kabi oshiq jismi vujudga keladi”. Bu yerda Haqqa bo‘lgan ishqning azaliy va abadiyligi, Odam Atodan qolganligiga ishora bor.

Beshinchi bayt:

Yuzung visolig‘a yetsun desang ko‘ngullarni
Sochingni boshdin-ayoq chin ila shikan qilg‘il.

Shoir yana yorga murojaat qilishga qaytadi. Ammo avvalgiday yolvorish-munojot ohangida emas, balki uning oshiqlar ko‘nglini ovlovchi jamolini (soch – husni jamol nishonasi va tajalliy olami) vasf etish orqali munosabat bildiradi, yorga bo‘lgan mehr boshqacha yo‘sinda izohlanadi. Baytning mazmuni chin va shikan so‘zlarini izohlash vositasida ochilishi mumkin. Chin va shikan ma’nodosh (sinonim) so‘zlar, ya’ni: chin 1) rost, to‘g‘ri (o‘zbekcha ma’nosi); 2) o‘ram, bukum, halqa-halqa shaklida bo‘lish (forsiy ma’nolari). N. bu o‘rinda ikkinchi ma’noni nazarda tutgan. Shikan pech-u top (tob), qat-qat bo‘lish, o‘ram-o‘ram, zanjirsimon shakl olish; 3) iskanja, azob. Misrada shikanning har ikki ma’nosi ham aks etgan. Chunki yorning halqa-halqa buramali zulfi oshiq ko‘nglini ilintiradigan tuzoq, tuzoqqa tushgan qush azoblangani kabi, ko‘ngil ham shunday iztirob-uqubatni boshdan kechiradi (sochni tuzoqqa, ko‘ngilni qushga o‘xshatish baytda zimdan anglashilib turibdi). Ammo oshiq bunga mingdan-ming rozi. Axir yor zulfining domiga giriftor bo‘lmay turib, uning visoliga muyassar bo‘lish mumkin emas-da! Agar aql zulfning bandida bo‘lish bu qadar rohat ekanligini bilsaydi, oqillar zanjirimiz izidan devona bo‘lardilar, deydi Hofiz. “Bedil o‘lsa. Zulfining zanjiridan minglab dil qo‘zg‘oladi”, deb yozgan.

Nega shunday, nega ko‘ngil yor zulfi halqalariga ilinmay visolga yetishi mumkin emas? Bu savolga, yuqorida aytilganlardan tashqari, yana tasavvuf timsollari ma’nosiga suyanib, quyidagicha javob berish mumkin: tasavvuf bo‘yicha, soch mavjud dunyo ramzi, yuz esa ilohiy manba ramzidir. Ya’ni: mutlaq ruh dunyoni yaratar ekan, unga o‘z nurini taratib (tajalli etib) harakatga keltirgan. Husn-u jamol bag‘ishlagan. Dunyo kasrat, ya’ni ko‘plikni anglatadi, bunda ilohning sifatlari mujassam. Dunyo bepoyon va Iloh man-

basiga nisbatan qorong‘iroq-zulmatli. Sochning uzunligi va qoraligi ham dunyoning bepoyonligi va zulmatiga ishora. Sochning halqalari solik ruhi ovora, band bo‘ladigan dunyo tashvishlari. Sochning uchi insonning o‘zi. Boshqacha aytsak, inson tajalliyotning oxiridir, u asl manbaga qaytishga intiladi, chunki u mutlaqiyatdan ajralgan, hijronda. Lekin dunyo tashvishi, zulmatini, halqalarini yengmasdan turib, mutlaq ruh jamoliga musharraf bo‘lolmaydi. Visolga erisholmaydi. N. bayti ana shunga ishora.

Va, umuman, Sharq poetikasida ma’shuq yuzini gul, gulshan, g‘uncha, quyosh, oy; qoshini kamon, yarim oy; kiprigini kamon o‘qi; labini la’l, g‘uncha, aqiq; tishlarini gavhar, marvarid, sadaf; qaddini nihol, sarv daraxti, alif harfi, shamshod; sochini zanjir, tuzoq, tun, shom; ko‘zini joduga, ohu ko‘ziga o‘xshatish rasm bo‘lgan. Har bir shoir shu an’anaviy tashbeh-obrazlar tanosubiyatidan yangi ma’no, yangi tasvirlar yaratib, o‘z mahoratini namoyish etgan. Sharhlayotganimiz baytda soch shunchaki tuzoqqa o‘xshatilmagan, balki u bir joziba manbayi, jamolning zuhur etish nuqtasi sifatida ko‘rsatilgan. Mahbubning oshiq oldida o‘ziga oro berishiga da’vat bor. Shu tariqa, baytning umumiy mazmuni: “Agar yuzing visoliga ko‘ngillarning yetishishini istasang, soching (zulfing, kokiling)ning hammasini halqa-halqa, buram-buram qilib yur”. Yoki: “Ko‘ngillarni sir etib, vaslingga musharraf qilmoqchi bo‘lsang, sochingni zanjirga aylantirib, ularni bog‘la yoxud tuzoq halqalariday buram-buram qilib ilintirib ol”.

Va yana: “Iloh jamoliga, Komil inson huzuriga yetmoq uchun jami iztirob va azoblarga roziman, ey ishq, zanjiring-la bog‘la”.

Oltinchi bayt:

Xazon sipohiga, ey bog‘bon, emas mone’
Bu bog‘ tomiga gar ignadin tikan qilg‘il.

Bu “Qaro ko‘zim” g‘azalining murakkab ma’noli tagdor baytlaridan biri. Shoir ishq-u oshiqlik, sevgi va sadoqat haqida yozib kelib, orada birdaniga dunyo va uning ishlari, umr, hayotning o‘tkinchiligi to‘g‘risida falsafiy mushohadaga beriladi, bir armon-orziqish, afsus-hasrat aralash mahzunlik kayfiyati yuzaga balqiydi. Yor jamoli vasfi, sadoqat izhorining xushholliklaridan keyin buni qanday tushunish mumkin?

“Xazon sipohi” ko‘z lashkari, xazonrezgi payt demak. Tikan, igna b-n lashkarning nayzalari ham qiyosga olingan: son-sanoqsiz qo‘shin qo‘lidagi uchli nayzalar uzoqdan osmonga qaratib terilgan ignalarday ko‘rinadi. Biroq gap faqat shu tashbehda emas. Buning o‘zi b-n mazkur baytni sharhlab bo‘lmaydi. Bu o‘rinda N. o‘z davrida keng tarqalgan yana bir odat bog‘ va hovlilarning devori ustini tikanakli butalar b-n o‘rab chiqishni nazarda tutib fikr yuritgan. Bog‘ ichidagi mevalarni zarar-kunanda hayvonlar va o‘g‘rilardan qo‘riqlash u-n shunday qilinardi. Shoir shunga ishora qilib, deydiki, ey bog‘bon, sen bog‘ingning devorlarinigina emas, berkitib chiqsang-da, uni xazondan saqlab qololmaysan, baribir kuz keladi va daraxtlar bargi xazon bo‘ladi, ya’ni baytning mazmuni: “Ey bog‘bon, bu bog‘ tomini ignadan tikanaklar qilib yopib chiqsang ham, kuz qo‘shinining hujumiga bardosh qilolmaysan”. Chunki inson falak aylanishi, zamonlarning o‘tishi, tabiat qonunlariga qarshilik qilishga ojiz. Shunday bo‘lgach, yor visoliga intil, g‘animat damlarini behuda o‘tkazmay, umr shodliklaridan bahramand bo‘l. Bunda yana o‘tkinchi dunyoga mehr qo‘yish, olam-olam qo‘shin yig‘ib jahongirlik qilish, mol-u mulk yig‘ishga qarshi fikr ham mujassam. Zero, qancha mehr qo‘yma, dunyo baqosiz, faqat ilohiyot abadiy, o‘shaning yodida yasha. Vafoli yor ham shu Allohning o‘zi. Ma’lum bo‘ladiki, bayt ohangida hazinlik sezilsada, lekin botiniy ma’no xulosasi hayotsevarlikka hidoyat etadi va shu asosda oldingi baytlarga bilvosita bog‘lanadi. N. oshiq sadoqati, ishq qudratini kuylab, yordan vafo tilab (“Ko‘zim gavhariga joylashib olgin”), umrning o‘tkinchiligi muqarrarligini dalil keltirgan.

Yettinchi bayt:

Yuzida terni ko‘rib o‘lsam, ey rafiq, meni
Gulob bila yuv-u gul bargidin kafan qilg‘il.

6-baytdagi kayhoniy falsafiy qimmat bu yerda yo‘q, shoir yana ishq mavzusiga qaytadi. Ammo shunga qaramay, bu bayt ham oltinchi baytning bevosita davomi va mazmun-ma’nolarning miqyosiyligi, teranligi bilan undan murakkabroq. Nega shunday deyapmiz? Zohiran qaraganda, hamma narsa aniq-ravshan: ter, gul, gulob nima ekanini ko‘pchilik biladi. Mahbub yuzidagi ter gul bargidagi shabnam singari jozibali yoxud guldan olinadigan xushbo‘y dorivor ichimlik gulobday yoqimli. “Gulob gul suvi, atirgul yaproqlaridan olinadigan xushbo‘y ichimlik”. Gulobni ambiq degan maxsus asbob vositasida olganlar, u molixuliyo, xafaqon kasalliklariga davo bo‘lgan; taomga, ichimlikka qo‘shib iste’mol qilingan. Behush odamning yuziga gulob sepib hushiga keltirganlar. Shoirlar mahbub yuziga tomgan ko‘z yoshini ham majozan gulob deya tasvirlaydilar. Ammo forschada – “hay”, arabchada – “araq”. Araqning ikkinchi ma’nosi ichimlik ekanligi ma’lum, shu ham aniqki, u gulobga o‘xshagan yo‘l bilan hosil qilingan: “Araq” – dorivorlarni pishirishda bug‘-dan hosil qilinadigan suv”. Shunday qilib, araq va ter so‘zlari ma’nodosh, ya’ni bug‘dan paydo bo‘ladigan ter tomchilari yig‘ilib, araq vujudga keladi. Shoir tasviriga ko‘ra, yor yuzi bamisoli gul va undagi ter tomchilari guldan olingan gulob. Ajib dilrabo surat. Boz ustiga, tashbehlanuvchi so‘zlar yashirin ravishda, istiora tariqasida keltirilib, zavqli san’at yaratilgan.

Bular hammasi ma’qul, biroq sharhimiz kishini qanoatlantirmaydi, chunki baytning ma’nosi hali ravshanlashgan emas. M-n, nima u-n oshiq yor yuzida terni ko‘rganda o‘lishi kerak? Terda yana qanday hikmat bo‘lishi mumkin? Balki unda biz ilg‘amagan boshqa majoziy ma’nolar bordir?

“Tojik tilining izohli lug‘ati”da araq so‘zining xijolat tortish, hayo, uyat, (hayodan terga botish, uyat terlarini oqizish) kabi ko‘chma ma’-nolari borligi aytiladi. Bu bizni birmuncha maqsadga yaqinlashtiradi. Darhaqiqat, ter insonning ruhiy holatlaridan biri uyalish, hayo nishonasi, hayo esa eng sharif xislatlardan, kishini go‘zal va sevimli, munis, mo‘tabar qiladigan xislat. Nosir Xusrav yozadi:

Hayo asl ast dar zoti inson,
Ki dorat odamiro odamison.

Maz.: Hayo inson zotining asl belgilaridandir, u odamni odamiy qiyofasida tutib turadi.

N. esa “M.Q.” asarida hayoni vafo b-n yonma-yon qo‘yib, bunday hikmat durlarini tizadi: “Har ko‘ngulnikim, vafo maskan qilur, hayo ham qilar va har maskandakim. Ul topilur, bu ham topilur. Vafosizda hayo yo‘q, hayosizda vafo yo‘q. Har kimda bu ikki yo‘q, iymoni yo‘q va har kimda iymon yo‘q andin odamiylik kelmak imkoni yo‘q”. Hayo so‘zi shu tariqa o‘zida, yana nomus, vijdon, karam va saxovat kabi axloqiy fazilat tushunchalarini jamlagan.

N.ning lirik qahramoni sevgan odam ana shunday “ahli hayo komil insonlar”dandir. Shunday ma’shuqning jamoliga yetishganda, u jonini fido qilishga tayyor. Voqean, hayo visol lahzasida, ushshoq ahli bir-biri b-n yaqinlashganda yana ham kuchayadi. Yor jamolining tajallisi, salobat va hayajon shiddati shunday holga sabab bo‘ladi. “Hayo bir-biriga yaqin odamlarning ahvoli jumlasidandir va yaqinlik qancha oshsa, hayo ham ortadi. Va kimdaki hanuz hayo holati yuzida aks etmasa, bu alomat uning yaqinlik (muhabbat) martabasiga erishmaganini ko‘rsatadi”, deydi eronlik adabiyotshunos Sayyid Ja’far Sajjodiy o‘zining “Oriflar istilohlari lug‘ati” kitobida.

Demak, hayo muhabbat nishonasi, yor jamolini mushohada etish, ruhiy-ma’naviy sog‘-inch va tashnalikni qondirish sari intilishda qalb qo‘zg‘alishidan chehradan yog‘ilgan nur va safodirkim, shoirlar buni ter obrazida tarannum etganlar. (Shu o‘rinda o‘zbekcha “Me’rojnoma”-dan bir misol keltirmoqchimiz. “Me’rojnoma”da tasvirlanishicha, Muhammad Mustafo Buroqi bodpoyga minib, nur narvonidan arshga ko‘tarilar ekan, yor – Alloh diydoriga musharraf bo‘lish ishtiyoqi, muhabbat zo‘ridan terga g‘arq bo‘ladi:

Har araqkim, misli marjon-u guhar,
Ayladi paydo tani xayrulbashar.

Andin oq gulni daraxti bosh chekib,
Yashnadi bir soat o‘tmay ochilib.

Balki N. aynan ana shu terni, ana shu gulni nazarda tutgandir? Oq gul va dorulbaqo kiyimi kafan rangi bir xil-ku.

Go‘zal, navqiron mahbub yuzidagi ter uni yana ham dilrabo, dilkash qiladi. Mirzo Bedil: “Az safoyi orazatjon mechakad, gohe araq” (Yuzing safosidan goh jon tomadi, goh ter). Ter – suv. Rahmat suvi obi hayot:

Yuzungda xo‘y emas, obi hayot qatrasidin
Quyosh jamolig‘a sun’ i ilki taqdi zevarlar.

Maz.: Yuzingda ter emas, balki Tangri ko‘li obi hayot – tiriklik suvi qatralaridan quyosh jamoliga taqqan marvaridlardir.

Ulug‘ shoir nazdida ter pokizalik, fayz va jilo, tarovat, yor jamolining porlashidir. “Har yon yuzda ter oqizdingmu?” misrasi b-n boshlanadigan g‘azalida u terni yana safo-yog‘du, oy atrofidagi yulduzlar, hijron yoshlariga qiyoslagan bo‘lsa, boshqa bir g‘azalida “Yuzida ter fitnasidin o‘lsam ajab ermas”, deb yozadi va terni ruhni g‘alayonga soluvchi kuch sifatida ta’riflaydi. Suv ter soflik ramzi ekan, bu Piri Komil Qalbining musaffoligi ham.

Xullasi kalom, 7-bayt mazmunini bunday bayon etish mumkin: “Yor yuzida terni, ya’ni vafo alomati insonga rozilik nishonasi hamda pokiza qalb safosini ko‘rib, shu quvonch hayajoni ichra jon bersam, ey do‘st, meni yorning gul yuzidagi ter tomchilaridan hosil bo‘lgan muborak suv, gulob bilan yuvgin-da, o‘shal go‘zal yuzni eslatuvchi gul barglariga o‘rab ko‘mgin”. Bu oshiqning ayni vaqtda armoni va “Qaro ko‘zim” g‘azalida kuylangan sadoqat g‘oyasining cho‘qqisi! Chunki oshiq har bir baytda yorga bo‘lgan muhabbatining cheksizligini bildirib keldi, uni ko‘z gavhari o‘rnida ko‘rib, bag‘ir qonidan xina qilishni taklif etdi, yurakni, jonni, ko‘ngilni bir-bir uning yo‘liga bag‘ishladi. Shuncha iltijolardan keyin agar mabodo yor lutf etsa-yu, murodimga yetsam, hayotimni bus-butun unga qurbon qilardim, deydi sadoqatli oshiq 7-baytda. Mazkur bayt mazmunidan N.ning hayotsevarligi, hayot oshig‘i ekanini ham anglash qiyin emas: gul va gulob tiriklik ramzi, gulob bilan gulga o‘rash esa shu ma’noda kishiga abadiy hayot bag‘ishlash demak. Sakkizinchi bayt:

Navoiy, anjumani ishq jon aro tuzsang,
Aning boshog‘liq o‘qin sham’i anjuman qilg‘il.

Anjumani shavq shoir oshiq qalbidagi ishtiyoq-istakning avj olishi, yorga yetishish orzusi taraddudini shu ibora b-n ifodalagan (iboraning lug‘aviy ma’nosi orzumandlik, kuchli rag‘bat majlisi, ma’rakasi). Bundan ruhiy hayajon, qo‘zg‘olish, surur bo‘ronining boshlanishi ham anglashiladi. Jon ichida shunday anjuman tuzish ko‘ngilning nurli orzularga limmo-lim bo‘lishidir. Boshog‘liq o‘q o‘tkir uchli, o‘tkir tig‘li kamon o‘qi. O‘q uchining boshoqqa o‘xshashligi ham e’tiborga olingan. Shunday ko‘rinishda u chiroyli kiprik va yonib turgan shamga shaklan monanddir. Voqean, “boshog‘liq o‘q” deganda, N. yor kiprigini aytmoqchi. Chunki, kiprik muhabbat o‘qi, qaysikim, to‘g‘ri yurakka borib qadaladi. Baytning mazmuni: “Ey Navoiy, agar jon ichra shavq-hayajonli rag‘bat majlisini tuzmoqchi bo‘lsang, yor kiprigi o‘qini shu majlisning shami qil”. Bu yerda 2-baytdagi kitobat san’ati yangi detallar vositasida qaytarilgan, ya’ni kiprik alif harfiga ham o‘xshaydi, uning jon orasidagi majlis shami bo‘lishi jon o‘rtasida alifdek joylanishi demak. Shu zaylda ulug‘ shoir bir yo‘la beshta ashyoni bir-biriga tashbehlab, hayratomuz mahorat ko‘rsata olgan.

Bunda quyidagi tasavvufiy ma’no ham bor: kiprik o‘qi solikning hol maqomidagi ayni shavqqa to‘lishgan paytida chaqin kabi porlab uning ko‘nglini yoritadigan ilohiy jazba-ilhom, vahiylik

timsoli ham. “Anjumani shavq” bu o‘rinda hol maqomiga ko‘tarilishni anglatib keladi.

Alhosil, oxirgi baytning xulosaviy ma’nosi shuki, oshiqning yor visoliga intilishi cheksiz bir orzu, qo‘l yetmas idealiga talpinish. Zotan, axloqiy poklanish va bu poklikka muhabbat muttasil davom etadigan, chin inson qalbini yondirib turadigan tuyg‘u. Yor diydori orzusi yuragingni band etib, zo‘raysa, to‘lib toshsang, uning kiprigini shu orzu avjining chirog‘iga aylantir, ko‘ngilni uning muhabbati shami b-n yoritib tur, deydi shoir. Chunki yor o‘qi dardiga giriftor yurak hamma vaqt yoniq, mash’alador bo‘ladi.

Mana shu yakun b-n g‘azalning umumiy mazmuni yaxlitlik topadi, baytlar o‘zaro bog‘langan. Asar boshida ko‘ringan yorga iltijo, vafoga da’vat etuvchi munojot va oshiq sadoqatining izhori bora-bora tabiat, falak ishlari haqidagi o‘y-fikrlarga ulanib ketib, hayot boqiyligi, uning ishq timsolidagi ezgu va safoli nashidasi, Yor jamoliga chanqoq Ko‘ngilning dardli talpinishlari kuylanadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 1985; Комилов Н. Маънолар оламига сафар. – Т., 2012; Жумахўжа Н. Сатрлар силсиласидаги сеҳр. – Т., 1996.*

Nus.J.

QARSHI – Movarounnahrdagi tarixiy shahar nomi. N. lirik va epik asarlarida turli munosabat b-n Q. atamasi qo‘llanilgan bo‘lib, ular shoirning tarixni nihoyatda chuqur bilishi, tafakkuri va dunyoqarashi behad kengligini ko‘rsatuvchi omildir. U “M.N.” tazkirasida qator Q. muzofotidan yetishib chiqqan qalam ahllaridan so‘z yuritgan. Jumladan, Q.lik Mavlono Soyimiy ismli kotibning kitobat ilmida o‘z zamonasida yagonaligi, bir kunda 500 baytni osonlik b-n bitishini yozadi. Mazkur kotib turkvash sodda yigit ko‘rinsa-da, ammo devon tartib bergan iqtidorli shoirligini olqishlab, she’rlaridan namuna keltiradi. Yoki Mavlono Mir Qarshiyga bag‘ishlangan maqolada uning Samarqandda yashab, “Xatoiy” taxallusi bilan fors tilida ijod qilgan, deydi va N. uning asli Q.lik ekanini ta’kidlab o‘tadi. Shoirning “N.M.” tazkirasida tilga olingan Q.lik ilm ahllari haqidagi ma’lumotlar esa bu diyorda Islom ma’rifati, tasavvuf va adabiyot keng tarqalgani va teran ildiz otganini ko‘rsatadi. Q. yozma manbalarda Nasaf, Naxshab deb ham tilga olinadi. Chunonchi, N. ham Nasaf yoki Naxshab toponimi ostida aynan Q. shahrini nazarda tutgan. Tarixiy manbalarga asoslanib aytish mumkinki, Naxshab Q. shahrining qadimgi nomidir. Shoir “F.K.” devonida yor chiroyini ta’riflar ekan, uni Naxshabning oyiga mengzaydi. Darhaqiqat, VIII asrga oid tarixiy kitoblarga ko‘ra, Naxshab (q.) yaqinida Muqanna oynaga o‘xshagan asbob yasaydi. Bu asbob birmuncha masofagacha yorug‘lik berib turadi. Albatta, bu yerda Naxshab (q.)ning jug‘rofiy joylashuvidan kelib chiqib fikr yuritilsa, mazkur hudud havosi benihoya toza bo‘lganidan osmon jismlari ham tiniq ko‘rinishga ega bo‘larkan. Shu sababdan N. yorni Naxshabda ko‘rinadigan oyga o‘xshatib, uning nurli va jozibali chiroyini ta’rif etadi:

Bo‘lur shom ul mahi Naxshab ravona,
Kamandi zulfin ochib shab ravona.

“L.T.” dostonida tabiatidagi talavvunlikdan: goh fosiqlik, goho porsoliq qilishidan qanday qutulishni so‘rab savol bergan soyilga Hudhud javob bergandan so‘ng, shunday bir hikoyat keltiradi: Hikoyatda bu illatdan qutulishning chorasini ko‘rsatib bergan tarixiy shaxs – murshidi komil – Abu Turob Naxshabiy bo‘lib, voqea ham Q.da yuz bergani ayon bo‘ladi:

Zumrauyi tahqiq sofiy mashrabe,
Vosili haq Bu Turobi Naxshabi.

N. “N.M.”da ham Abu Turob Naxshabiyga to‘xtaladi va uning Xurosonning ulug‘ shayx ul-

mashoyixi ekani, avvalgi tabaqaga mansubligini qayd etib, qator fazilatlarini sanaydi: “Futuvvat-u zuhd-u tavakkulda Abu Hotam Attor Basriy va Hotam Asamm Balxiy bila suhbat tutubdur. Abu Abdulloh Jallo va Abu Ubayd Busriyning ustodi va piridur. Abu Turob (q.s.) uch yuz rikvador bila bodiyag‘a kirdi”. Shuningdek, tazkirada ishorat ilmidan ilk bor so‘z aytgan Abu Hotam Attorga bag‘ishlangan 43-fiqrada uning Abu Turob Naxshabiyning yaqinlaridan ekaniga urg‘u bersa, Xuroson mashoyixining buzurglaridan Ahmad Xuzravayh Balxiy, javonmardlardan Abu Hamza Xurosoniy, Abu Hamza Bag‘dodiy, podshohzoda Shoh Shujo’ Kirmoniy, Yusuf b. Husayn Roziy, Ali b. Sahl Azhar Isfahoniy, Abu Ubaydulloh Busriy, Muhammad b. Ali Hakim Tirmiziy, Abu Ja’far Haddod, malomatiyaning shayx va imomi Hamdun Qassorlarning Naxshabiy bilan suhbatdosh, Abu Abdulloh Jallo (q.s.) esa shogirdi bo‘lgani aytiladi.

Mashhur turk mashoyixlaridan Qusam Shayx ham Naxshabdan ekani ma’lum bo‘ladi. Ulug‘ yetti pirlardin biri Xoja Bahouddin Naqshband tariqatga kirgan vaqtlarida, unga “nafyu isbot” tariqi b-n zikr o‘rgatgan ustozi Amir Sayyid Kulol xizmatiga – Nasafga boradi. Bundan tashqari, Xoja Muhammad Porso ham Makka ziyorati u-n yo‘lga chiqqanida, bir qancha shaharlar, xossatan, Nasafdagi mozorlarni ziyorat qilib, boradi.

N.ning ulug‘ salaflaridan sanalmish Sayyid Hasan Ardasher sevib mutolaa etadigan asarlarning mualliflaridan biri tasavvuf mutafakkiri, shoir Azizi Nasafiy bo‘lsa, Pahlavon Muhammad tib ilmini o‘rgangan ustozi Mavlono Qutbiddin ham asli Nasafdan bo‘lgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; ЎзМЭ. 12-жилд. – Т., 2003.*

S.R.

QASIDA (ar. – qasd: niyat, maqsad, intilish) – arab, fors-tojik va turkiy xalqlar adabiyotidagi she’riy janrlardan biri bo‘lib, biror shaxs (shoh, vazir, amir, hokim, amaldor), muhim hodisa, tabiat manzaralarini madh etish, fazilat va xususiyatlarini ta’riflash maqsadida yoziladi. Kimnidir madh etish, nimanidir vasf qilishga bag‘ishlanganligi jihatidan unda ko‘tarinki uslub, tantanavor ohang yetakchilik qiladi. G‘azal kabi qofiyalanadi (aa, ba, va...), lekin hajm jihatidan cheklanmagan bo‘ladi. 15 baytdan 200 baytgacha cho‘zilgan Q.lar mavjud.

N. ijodida 11 ta Q. mavjud. Shundan 1 tasi o‘zbek tilida – “Hiloliya”. Qolgan 10 tasi fors tilida. Bu Q.larini u 2 katta turkumga ajratgan: “S.Z.” – diniy, tasavvufiy, ijtimoiy, axloqiy mazmundagi 6 ta Q. va “Fusuli arbaa” – tabiat fasllariga bag‘ishlangan 4 ta Q. “Xam.M.” asarida ma’lumot berishicha, “Tuhfat ul-afkor” qasidasida saltanat va hukmdorlik keskin tanqid qilingani u-n N. andisha qilib, Husayn Boyqaroning ko‘nglini ko‘taradigan, “darveshlar maddohlig‘ini qilib, ammo hukumat tavrini ta’yin qililmay” yana bir qasida yozish niyatida uning matla’sini Jomiyga ko‘rsatib, uning nazaridan o‘tkazgan, lekin bu Q. negadir yozilmay qoladi.

Bu Q.lar N.ni forsiy so‘z san’atidagi zabardast qasidanavislar maqomiga ko‘taribgina qolmay, uning bu tilda ham mahorat b-n yoza olish salohiyatini ko‘rsatgan. Ularning har biri yuksak san’at namunasi darajasiga ko‘tarilgan. N.Komilov N.ning o‘rta asrlar musulmon Sharqi erishgan falsafiy, irfoniy, ilohiy tushunchalar, Qur’on hikmati va hadislar mazmuni keng va teran aks etgan mazkur Q.larni “tafakkuriy qasidalar”, – deb ataydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011. Алишер Навоий. Девони Фоний. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т., 2014; Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати.*

– T., 1983; Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – T., 2010; Комилов Н. Хизр чашмаси. – T., 2005; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 3. – Душанбе, 2004.

E.O.

QAROBOG‘ – 1. Eronning sharqiy chegarasidagi shahar. 2. Ozarbayjondagi viloyat.

N. “S.I.”da joy nomi sifatida esga oladi:

Ki, chun qildi qishloq azmig‘a shoh,
Qarobog‘i Arroni oromgoh.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – T., 2011; Ғиёс ул-луғот. Жилди 2. – Душанбе, 1988; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. – T., 1985.*

Sh.R.

QAROXON – “S.I.” dostonida Iskandarga qarshi urushda Doro qo‘shiniga madad kuchli bo‘lib kelgan Hind elining boshlig‘i.

Xito mulkidin Mangu-qoon kibi,
Yana Hind elidin Qaroxon kibi.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – T., 2011.*

B.R.

QAQNUS (y.) – afsonaviy xushovoz qush. Afsonalarga ko‘ra, Hindistonda istiqomat qiluvchi bu qush uzoq umr ko‘rar emish. Uning tumshug‘i 2 qarich bo‘lib, 1002 ta katta-kichik teshigi bor. Q. kuylaganida har bir teshigida ovoz chiqib, go‘yo ming kishi birgalikda hazin bir kuyni chalayotganday bo‘ladi, deyiladi. N. ham Q.ning vatani sifatida Hindistonni ko‘rsatadi. Uning jufti bo‘lmay, o‘zi ming yil yashar ekan. Bu qushning tug‘ilishini shunday naql qiladilar: umri oxirlasa, o‘tin yig‘ib, ustiga chiqarkan-da, o‘tli bir navo qilar, shunda tumshug‘ining 360 teshigining har biridan alohida bir kuy taralar va bu o‘tli navodan o‘tinga o‘t tutashar ekan. O‘z ovozidan o‘zi mast bo‘lib, qanot qoqqanida o‘t yanada kuchli alangalanib, o‘rtanganidan o‘rtanadi va qush kuyib kul bo‘ladi. Shunda ilohiy qudrat vositasida yomg‘ir yog‘ib, bu kuldan bir tuxum paydo bo‘ladi va undan yangi qaqnusbachcha dunyoga keladi. Shuning u-n forsiylar uni otashzan ham deydilar. N. “L.T.” dostonining oxirida mashhur tasavvuf shoiri Farididdin Attor ruhi madadi b-n unga tatabbu’ qilib, bu asarni yozganini bayon etadi va Q. haqidagi go‘zal hikoyatni keltiradi: Hind diyorida Q. degan qush yashar ekan. Har bir Q.ning rangi har xil bo‘lib, minqor-tumshuqlaridagi juda ko‘p teshikchalardan dilkash ohanglar chiqarar ekan. Q.ning jufti bo‘lmas, baland daraxt ustida in qurarkan. Afsonaga ko‘ra, Fisog‘urs (Pifagor) Q. ohanglarini eshitib, bu turli-tuman sadolardan kelib chiqib, musiqa faniga asos solgan ekan. Q. butun hayoti davomida xascho‘p yig‘ib, katta xirmon uyar ekan. Umri poyonida esa shu xirmon ustida g‘oyat hazin kuy, dil o‘rtovchi navo taratar ekan. Buni eshitgani kelgan qushlar, hayvonlarning ko‘pchiligi nihoyatda ta’sirlanib, halok bo‘lar ekan. Q. oxirida shunday bir alamli navo tortar ekanki, undan o‘t chaqnab, xirmon ham, qushning o‘zi ham yonib ketar ekan. Kul tanidan esa bir bolasi par yozib chiqar, go‘zallashib uchirma bo‘lar ekan, otasi kabi o‘tin terishga kirishib ketar ekan.

Attor Q. tamsilini o‘lim zahmidan qo‘rqqan qushga Hudhud tasalli berib, o‘lim barhaq, undan hech kim omon qolmaydi, – degan ma’noni izohlash uchun keltirsa, N. Attorni Q.ga nisbat beradi:

Shayx go‘yo keldi ul avvalg‘i tayr,
Kim navo ichra qilib umrida sayr.

O‘zini esa Q. bolasiga o‘xshatishga jur’at eta olmay yozadi:

Men demonkim, ul otodur, men o‘g‘ul,
Ul shahi oliy sifot, men banda qul.

Rivoyat qilishlaricha, Aflotun Q.ning navosidan hazin nag‘mani topib, arg‘anun musiqa asbobini kashf etgan emish. Pifagor esa uning dilkash va jozib navosini eshitib, musiqa ilmiga asos solgan emish.

Muxtalif topib sadoyi shevanin,
Qildi ondin vaz’ musiqi fanin.

N. dostonlarida ham Q. obrazidan istifoda etadi. M-n, “F.Sh.”da Xusrav Dehlaviy Q.ga, uning she’riyatidagi musiqiylik, dil o‘rtovchi hazinlik, dardmandlikni Q.ning sayrashiga o‘xshatadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 2. – Душанбе, 1988; Энциклопедияи адабиёт а санъати тожик. Жилд 3. – Душанбе, 2004.*

S.G‘., E.O.

QAHQARO – “S.I.” dostonidagi personaj. U Iskandar qo‘lida xizmat qilgan pahlavon jangchilardan biri bo‘lgan. Iskandar vahshiylar qo‘shini bilan urush qilganda, bir vahshiy maydonga tushadi. Iskandar tomonidan Karkadan degan pahlavon jangga kiradi. Vahshiy Karkadanni yengib, asir qilib oladi va o‘z odamlariga topshiradi. Shundan so‘ng Q. unga qarshi jangga chiqadi. U nihoyatda baquvvat va haybatli bo‘lgan. Asarda N. uning ko‘rinishini shunday tasvirlagan:

Qayo yanglig‘ ostida ko‘hpaykare,
Vale po‘yada o‘ylakim sarsare.

Degil qulla uza baloye minib,
Va yo tog‘ uzra ajdahoye minib.

Har ikki raqib bir-birlariga tashlanib, qattiq jang qiladilar. Goh unisi hujum qilib, buni qochiradi, goh bunisi uni qochishga majbur etar edi. Oxir-oqibat vahshiylar pahlavoni Q.ni otdan yiqitishga muvaffaq bo‘ladi:

Ki, markabdin o‘ldi nigun Qahqaro,
Yiqildi qaro gard-u tufroq aro.

Ani dog‘i rust aylabon devzod,
G‘anim ista-yu aylar erdi inod.

Shu tariqa Vahshiy Iskandar qo‘shinidan o‘n uch kishini yengadi. Shundan so‘ng jangga yuziga niqob tutgan go‘zal kiradi.

Bu voqealar “S.I.”ning oltmish to‘rtinchi bobida bayon etilgan. Bobda Q.ning asli Mashriq Zamindan, Kirvon degan yerdan ekanligi aytib o‘tilgan:

Laqab Qahqaro deb anga ahli kin,
Yeri Kirvon, zodi Mashriq Zamon.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Ўзбек адабиёти тарихи. 5 жилдлик, 2-жилд. – Т., 1977; История узбекской литературы в двух томах. Том 1. – Т., 1982.*

Q.E.

“QIBLATUL KUTTOBKIM, DERLAR ANI SULTON ALI...” – N.ning Sulton Ali Mashhadiyga bag‘ishlab yozgan qit’asi:

Qiblatul kuttobkim, derlar ani Sulton Ali,
Kim qazo kilki masallik xomasi yozmas g‘alat.
Qaysi qit’amniki yozdi bordi andin she’rlik,
El solurlar juzvdong‘akim erur bir qit’a xat.

Ma’lumki, Sulton Ali Mashhadiy XV asrda yetishgan buyuk san’atkor xattot bo‘lgan. U o‘ziga xos xattotlik maktabini yaratgan. Husayn Boyqaro hukmdorligi davrida Sulton Ali Mashhadiy Hirotda N. na Abdurahmon Jomiylar b-n hamkorlikda ishlagan. “Xushnavislardin agarchi xili kishi bor edi, vale barining saromadi (oldingisi) nasta’liqda (xat turi) Sulton Ali Mashhadiy

erdi”, – deydi Zahiriddin Muhammad Bobur. N. ning Sulton Ali Mashhadiy qo‘li b-n ko‘chirilgan devonlari va “X.”si, Shayx Sa’diy devoni va Husayn Voiz Koshifiy kabi ijodkorlarning asarlari chinakam san’at namunalari hisoblangan. Sulton Ali “Qiblat ul-kuttob” – “Kotiblar qiblasi”, “Sulton ul-xattotin” – “Xattotlar sultoni” unvonlari b-n yanada mashhur bo‘lgan.

Shuning u-n N. ham bu ulug‘ xattot madhidagi so‘zlarini “Qiblatul kuttobkim, derlar ani”, – deb boshlagan. Shoir ta’rifida Sulton Ali mutlaqo g‘alat – xato yozmaydigan xoma – qalam sohibi – “komil qalamzan”. Uning xatlari go‘zallik va nafislikda ham tengsiz. Buning bir isbotini N. Sulton Ali tomonidan ko‘chirilgan qit’alari misolida tasdiqlaydi:

Qaysi qit’amniki yozdi bordi andin she’rlik,
El solurlar juzvdong‘akim erur bir qit’a xat.

O‘ta kamtarlik b-n aytilgan “bordi andin she’rlik” so‘zlarini “xat jozibasi tufayli yozganlarim haqiqiy she’rga o‘xshab qoldi” ma’nosida anglash kerakki, shoirning Sulton Ali ko‘chirgan qit’alari el “juzvdon”lari (charmdan ishlangan kichkina papka)da bir enlikkina muqaddas bitikday asrab-avaylanganligi shubhasizdir.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Ҳаққул И. Касби камол ўзни танишдир. – Т., 2021.*

I.H.

QIYOT – turkiy qabila – urug‘ nomi, etnonim. Tarixiy-adabiy manba va hujjatlarda Q. haqida ko‘plab ma’lumotlar bitilgan. N. asarlarida ham shu ma’noda qo‘llanilgan. N. “N.Sh.” devonida berilgan g‘azallarining baytida qiyot atamasini qo‘llagan:

Men tilab husn vale shoh tilab asl-u nasab,
Menga lo‘li bila hind-u, anga qo‘ng‘irot-u qiyot.

N. uslubiga xos holatlardan biri shoir urug‘, qabila nomlarini deyarli yonma-yon qo‘llaydi, mazkur baytda ham qiyotni qo‘ng‘irot b-n birga qo‘llagan.

Ad.: *Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011.*

B.R.

QILINMUN (Kilinmun, Filimon) – qadimgi yunon donishmandi. N.ning “S.I.” dostonida Iskandarning jahondorlik muddaosi b-n yo‘lga chiqib, Xurosonga yetgani, Hirotni bino qilgani, Movarounnahrni olib, o‘xshashi yo‘q Samarqandning tarhini chizib, yana yurishda davom etarkan, Kashmirni qo‘lga kiritishda kashmiriylar jodusini daf etish u-n Muso kabi aql ishlatib, sehrli tarzda turgan qal’alarni mo‘jiza b-n buzib, tilsimli qo‘rg‘onga kirishida unga besh yuz hakim ko‘mak bergani aytiladi. Ular orasidan o‘n donishmand kecha-yu kunduz Iskandarning yonida hozir bo‘lishgan. Shavkatli Iskandarga qo‘rg‘onni buzish u-n maxfiy tilsim tayyorlab berarkan, ular orasida Q.ning ham ismi zikr etilarkan, uning nihoyatda yetuk olimligi ma’lum bo‘ladi:

Bor erdi janobida besh yuz hakim,
Alardin o‘ni kecha-kunduz nadim:

...Qilinmun-u Volis-u Farfurnus
Ki, Suqrot-u Hurmus kibi xokbo‘s.

...Tilismi nihonni ayon qildilar,
Nihon barcha ramzin bayon qildilar.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

A.A., S.O‘.

QIPCHOQ (QIFCHOQ) – turkiy qabila, urug‘ nomi, etnonim. Bu urug‘ haqida manbalarda ma’lum ma’noda ma’lumotlar uchraydi. N. Q. urug‘i nomi sifatida emas, balki Dashti Q. aho-

lisi yoki Q. dashtlari nomi b-n mashhur bo‘lgan hudud, ya’ni tarixiy-geografik toponim sifatida tilga olgan. U haqda asosan “S.I.” dostonining 9-bobida gapirgan:

Balo abridin tushgach ul ildirim,
Ko‘rub Dashti Qifchoqdin to Qirim.

Ma’lumki, Dashti Q. – Sirdaryoning quyi oqimi va Balxash ko‘lidan Dnepr daryosining quyi oqimlarigacha bo‘lgan hududning XI–XVI asrlardagi nomi. Dashti Q. atamasini dastlab Nosir Xusrav (1003–1088) qo‘llagan, shundan boshlab arab va fors tillaridagi asarlarda uchraydi. V.V.Bartoldning aniqlashicha, Dashti Q. aholisi (Sharq manbalarida – Q.lar, rus solnomalarida – polovetslar, Vizantiya tarix kitoblarida qo‘monlar) ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi bo‘lib, chorvachilik va ovchilik, daryo, ko‘l yoqalarida yashagan aholi dehqonchilik, shaharlar (Saroy Botu, Saroy Berke, Urdu Bozor, Sig‘noq, Arquq)dagi aholi esa hunarmandchilik va savdosotiq bilan shug‘ullangan.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

B.R.

“QISSASOZ VA QISSAXONLAR ZIKRIDA” – “M.Q.” asarining yigirma uchinchi fasl nomi. N. mazkur faslni hajman qisqa va asosan tanqidiy ruhda yozgan. Unda N. insonga kayf beruvchi majun yo nasha yo ko‘knori chekib olib, kayf b-n hangoma, ma’rakalarda doston, qissa aytish o‘rniga behuda, bema’ni so‘zlarni aytuvchi qissago‘y, baxshilarni tanqid ostiga olgan. U qissasoz, qissaxonlarning odamlarni ovuch qoqib, qo‘rqitib, cho‘chitib yoki hurkitib, telbalarcha qilgan xatti-harakatlarini salbiy baholagan. Muhimi, tasvirda N. ular tashkil qilgan ma’raka, yig‘inlarga ishtirok etgan odamlarning ustidan ham zaharxandalik b-n kulgan. O‘qiymiz: “Qissasoz-bekor va qissaxon-harzaguftor; har kim ma’junnok yo bangi, ko‘nglida aning ma’rakasi ohangi. Biyik un bila ovuch qoqmog‘i har dam, xirad va ozarm qushlari topmoq uchun ram qo‘rqish, cho‘chish hurkish. Harakotidin zohir telbalar atvori va kalimotidin bohir usruklar shiori. Teva qumalog‘in sotarda qand deguvchi, ma’rakasidag‘i mu’taqidlari ani sotqun olib yeguvchi”.

Tarixdan ma’lumki, hukmdorlar, xususan, temuriylar saroyida ixlos, sadoqat va tartib doirasida mahorat b-n doston, qissa, hikoyatlar aytuvchi qissasoz, qissaxon, baxshilar faoliyat olib borgan. Bu haqda Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Mirxond, Davlatshoh Samarqandiy kabi muarrixlar asarlarida ma’lumotlar yozgan. Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro”da Shayx Ozariy tilidan aytilgan hikoyatda ulug‘ Amir Temur Ko‘ragon va Mirzo Ulug‘bek qissaxonlari haqida ma’lumot bor. Chunonchi: “Ey, darvish, sen eski hamsuhbatimiz ko‘rinasan, qissaxonimizning jiyani emasmisan?” Shohning o‘tkir zehni, farosat-u pok idrokidan lol qolib, dedim: “Ha, janoblari qissaxonining jiyaniman”. Ulug‘bek Qorabog‘da aytilgan hikoyatlar, Gurjiston g‘azovoti hamda Ozarbayjon ajoyibotlarini o‘rtaga soldi. Men yodimda qolganlarini aytib berdim”.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Давлатшоҳ Самарқандий. Тазкират уш-шуаро. – Т., 1981; Шамсиев П., Иброҳимов С. Навоий асарлари луғати. – Т., 1972.*

B.R.

QISQA HIJO – qisqa unli b-n tugallanadigan ochiq hijo (V): sahar, chaman, kitob, elim kabi so‘zlarning birinchi H.lari bunga misol bo‘ladi. Ba’zida vasl hodisasi tufayli H.lar oxiridagi undoshning o‘zidan keyingi unli b-n tugagan undoshga qo‘shilib, o‘qilishi natijasida cho‘ziq hijo qisqa H.ga aylanishi ham mumkin. M-n:

Qaro ko‘zum / kelu mardum- / li- g‘- emdi fa-n / qilg‘il.

V – V – / V V – – / V – V – / – –

mafoilun / failotun / mafoilun / fa’lun
Mujtassi musammani maxbuni maqtu’

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

E.O.

QIT’A – Sharq she’riyatidagi eng qadimgi janrlaridan biri. Q. (ko‘pligi muqattaot) arabcha so‘z bo‘lib, lug‘aviy ma’nosi parcha, bo‘lak demakdir. Adabiy istilohda mustaqil poetik belgilariga ega, ma’no miqyosi aniq chegaralanmagan, xohlagan bir vaznda yoziladigan ikki va undan ortiq baytli she’rga Q. deyilgan.

Q.ning paydo bo‘lish tarixi va g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari uzoq asrlardan buyon olimlarning diqqatini jalb etib keladi. Ba’zi olimlar uni mustaqil she’riy janr deb bilishsa, ayrimlari unga qasida yoki g‘azalnipg parchasi, bo‘lagi sifatida qarashgan. Qadim adabiyotshunoslardan Abdurahim ibni Ahmadi Sur: “Qit’a... bir necha baytli matla’siz she’r. U g‘azal yoxud she’rdan kesib olinadi”, – deydi. Bu gapdan xulosa chiqarilsa, g‘azal yo she’rdan uzib olingan har qanday parchani Q. deyish mumkin. Vaholanki, Q.ning hajmi, vazni, mavzu yo‘nalishi qat’iy chegaralanmagan bo‘lsa-da, mustaqil janr sifatida uning o‘ziga xos talab va xususiyatlari bor. Uning, ayniqsa, tili, ifoda usullari va obrazlar tizimi boshqa bir she’riy janrnikiga, deyarli, o‘xshamaydi. Q. shuning uchun ham badihabop she’r shakli sifatida e’tirof etilgan.

Eron olimi doktor Zaroyi Xonlari (Kiyo) Q.da pand va hikmat g‘oyalari ifodalanishi, uch baytdan o‘n ikki baytgacha bo‘lishini yozadi. Turk adabiyotshunosi Muallim Nojiy esa: “Qit’a-matla’yi misra (birinchi bayti qofiyalanmagan – I.H.) uldig‘i holda yakqofiya nazmdir. Aqli ikki bayt o‘lur...”, – degan. Haqiqatan ham, Q. kamida ikki bayt miqdorida bo‘lishi shart deb hisoblangan. Hajmi kichiklari “Ali-ul taloq qit’a”, to‘rt baytdan ortiqlari esa “Qit’ayi kabiri” deb nomlangan. “Ali-ul taloq qit’a” fasohatli, xushbayon, muxtasar ma’nolarini bildiradi, shoirlar ko‘pincha mana shu xil Q. yaratishga intilishgan. Q.ning hajmi xususida shuni qayd etish kerakki, o‘zbek adabiyotida, umuman, to‘rt baytdan ortiqlari kam uchraydi. Gadoiy, Lutfiy, Bobur, Ogahiy, Miriy va boshqa klassik shoirlarimizning Q.lari ikki, uch, to‘rt baytlidir. Q.da axloqiy, falsafiy, diniy-irfoniy va ijtimoiy mavzularning keng yoritilishi, shuningdek, Q. shaklida madhiya, tarix, chiston va marsiya bitilgani omma orasida unga qiziqishni kuchaytirgan.

N. lirik merosida Q. ham hajm-salmoq, ham g‘oyaviy-badiiy mundarija-ahamiyat jihatdan g‘azaldan keyin ikkinchi asosiy o‘rinni egallaydi. “X.M.”da 210 qit’a (“Badoye’ ul-vasat”da 60, qolgan uch devonning har birida 50 tadan) mavjud. Prof. H.Sulaymon “X.M.”ga kirmay qolgan yana 8 ta o‘zbekcha qit’ani aniqlagan. N.ning turli mavzu va yo‘nalishdagi asarlari qismida ham qit’a ancha-muncha uchraydi. Asarda bu jumlaga “D.F.”dagi 70 dan ortiq forsiy Q.larni qo‘shsak, ularning umumiy soni uch yuzdan ham oshib ketadiki, bu hol N.ning o‘z ijodida Q.ga jiddiy ahamiyat berganini ko‘rsatadi. N.ning o‘zi tartib bergan birinchi rasmiy devoni “B.B.”ga 49 Q. ning kiritilishi esa, (keyinchalik ularning deyarli barchasi “G‘.S.”dan o‘rin olgan) bu janr shoir ijodiy faoliyatining boshlang‘ich davrlaridanoq faol bo‘lganidan darak beradi. Bu bejiz emas, albatta. N. Q.ning janr imkoniyatlaridan (jangovorlik, hayotiylik, hajm va mavzu erkinligi, avtor “men”ining faol harakati, badiiy vositalar va leksikada an’anaviylikning qat’iy emasligi va boshqalar) keng foydalandi, ko‘p jihatdan novator sifatida qalam tebratdi, uning g‘oyaviy-badiiy mundarijasi va mavzu doirasini nihoyatda kengaytirdi.

N. qit’alarining bu fazilati adabiyotimizda ungacha bo‘lgan kam sonli namunalar b-n qiyoslanganda ko‘zga yaqqol tashlanadi.

M-n, Lutfiy devonidan o‘rin olgan Q.larning hammasi ishq-muhabbat mavzusida bo‘lib, ularda an’anaviy talqin va badiiy vositalar ustunlik qiladi. N. merosida esa bu mavzudagi Q. ham,

lirikada qat'iylashib qolgan obrazlar, tashbih va iboralar ham deyarli uchramaydi. Shoir qit'alari faqat mavzusi rang-barangligi va talqin originalligi jihatidangina emas, balki umumiy ruh, ohang, tasviriy vositalar va hatto leksik tomonlari b-n ham lirik g'azallardan sezilarli farqlanib turadi. N. Q.larining asos ko'pchiligi ikki baytdan iborat. Ular "X.M."dagi 210 qit'adan 170 ga yaqinini tashkil etadi. 6, 7, 11 baytlidan bittadan namuna, 2 qit'a 9 baytli, qolganlari esa, 3, 4, 5 baytdan iborat. "D.F."dagi qit'alar ham asosan 2-3 baytdan iborat.

N. badiiy merosining ajralmas qismi bo'lgan Q.larda ham umumijodi u-n xos bo'lgan chuqur insonparvarlik va xalqparvarlik, do'stlik va sadoqat, ma'naviy poklik va mehnatsevarlik, to'g'rilik va adolat g'oyalari lo'nda va nihoyatda aniq olg'a suriladi, ishonarli dalillar va hayotiy taqqoslar vositasida o'quvchi ongiga yetkaziladi. O'sha jamiyat illatlarini hayotdagi haqsizlik va zo'ravonlikni fosh etib qoralash, yaramas kishilar tabiati va faoliyatlaridagi xudbinlik va manmanlikni, tama va ochko'zlikni, yalqovlik va g'arazni, laganbardorlik va kaltabinlikni tanqid etish shoir Q.larining yetakchi mavzusiga aylangan. Shunga ko'ra, ko'pchilik Q.larda tanqidiy, hajviy va yumoristik ruh ustunlik qiladi. Realistik mazmun va g'oya teranligi, hayotiylik va aniqlilik, fikr lo'ndaligi hamda qat'iy hukm-xulosalar tarzida keskin va aniq ifodalanishi, falsafiy o'tkirlik va mantiqiy asoslanganlik N. qit'alarining xos fazilati darajasiga ko'tarilgan. Shoir bevosita o'sha davr va tuzum, o'zi va zamondoshlari – tarixiy shaxslar to'g'risida, shaxsan qatnashgan yoki aniq guvoh bo'lgan voqea-hodisalar haqida aniq fikr yuritadi, o'zining boy tajriba va mushohadalariga tayanadi, umumga aloqador masalalarni obyektiv yoritadi.

N. qit'alarining mavzu jihatidan quyidagi shartli guruhlarga bo'lish mumkin:

1) ijtimoiy-siyosiy ruhdagi Q.lar. Ularda saltanat, shohlar, amaldorlar va ularning ijtimoiy faoliyati, tabiati haqida. N. bu mavzuni asosan falsafiy-nazariy va tanqidiy-hajviy planda tahlil etadi.

"G'.S."dagi: "Shaho, el javhari jonin chiqarding", "Shohning af'oli etar xayl-u sipohiyga asar"; "N.Sh."dagi: "Hikmat ahli shohni daryog'a tashbih ettilar", "Jahon ganjiga shoh erur ajdaho"; "Badoye' ul-vasat"dagi: "Quyoshdek shoh adolat pesha qilsa", "Toj ko'p dardisar berur bizga" va "Devoni foniy"dagi: "Ey falon, suxti xaloyiqro" misralari bilan boshlanuvchi Q. lar bu guruhni tashkil etadi.

2) axloqiy-didaktik ruhdagi Q.lar. Bu namunalarda sof insoniy belgilar, yuksak fazilatlar madh etiladi, himmat va saxovat, xushxulq va odob, kamtarlik va tavozu' ulug'lanadi, halollik va to'g'rilikka chaqiriladi, bilim egallashga, kasb-hunar orttirishga da'vat etiladi. Ularda pand-u nasihat, hikmat va ibrat hayotiy lavhalar zaminiga singdirilib yuboriladi, tajriba va kuzatuvlar, amaliyotdan olingan dalillar bu tur Q.larga reallik va aniqlik baxsh etadi.

"G'.S."dagi: "Kamol et kasbkim, olam uyidin", "Chu dushman o'ldi qadimiy ziyonidin hazar et", "N.Sh."dagi: "Tavozu' yaxshi, ammo yaxshiroqdur", "Safih zolim ila bo'lma xon uza hamdast"; "B.V."dagi: "Tuzlukka moyil o'lki, ishing borgay ilgari", "Kirmagay jannat ichra hech baxil"; "F.K."dagi "Og'zinga kirgan takallum rishtasin chekma uzun"; "M.Q."dan o'rin olgan "Yor uldurki, har nekim o'ziga" hamda "D.F."dagi "Chu izzat badoyat tarki tama' kun" misralari bilan boshlanuvchi Q.lar axloqiy-didaktik mazmun-g'oyani badiiy go'zal va juda ta'sirchan bir shaklda olg'a suradi.

Bir qator Q.larda ilg'or axloqiy normalar targ'ibi, chin insoniy fazilatlar madhi ayrim shaxslar tabiati va faoliyatidagi nuqsonlarni fosh etish, laganbardorlik, tamagirlik, munofiqlik, xudparastlik, befarosatlik kabi salbiy belgi va intilishlarni qoralash, mayna etish orqali ham amalga oshiriladi. "Kimki mahluq xizmatig'a kamar", "Umrin ablah kechurub g'aflat ila" ("G'.S."), "Falong'a ajab hol erurkim, xaloyiq", "Nokas-u nojins avlodin kishi bo'lsun debon" ("N.Sh."), "Uch kishidin uch ish yomon ko'rinur", "Birovkim xiradmandning nuqtasin" ("B.V."), "Der anga na so'z siflan

naxs deb” (“F.K.”) va “Har on shaxse ki napisandad kasero” (“D.F.”) misralari bilan boshlanuvchi Q.lar shu xarakterdadir.

3) avtobiografik ma’lumotlarni o‘zida jamlovchi, shoirning shaxsiy hayoti lavhalariga ishora etuvchi Q.lar. Shoir tarjimayi holini tiklashda, shaxsiyatini aniqroq gavdalantirishda muhim va ishonchli manba vazifasini o‘tovchi bir tur Q.larining birida, m-n, o‘zining yaraqon kasaliga duchor bo‘lganligi haqida so‘z yuritadi, yana ikki Q.da esa muhrdorlik lavozimiga tayinlanishi va keyinchalik bu haqda amirlik lavozimlarini tark etishi to‘g‘risida ma’lumotlar uchraydi. “Ne nazmeki-o‘tlug‘ ko‘nguldin chiqardim” (“N.Sh.”), “Ey Navoiy, so‘z ila oncha guhar sochtinkim”, “Navoiy she’ri to‘qqiz bayt-u o‘n bir bayt, o‘n uch bayt” (“B.V.”), “Nazmim ichra g‘arib ma’nilar”, “G‘azalda uch kishi tavridur ul-nav’” (“F.K.”) hamda “Ma’ni-yi shirin-u ranginam ba turki behad ast” (“D.F.”) misralari bilan boshlanuvchi Q.larni ham shu guruhga kiritish mumkin, chunki ularning har birida shoir o‘z ijodiy faoliyatining ayrim lavhalari yuzasidan bahs yuritadi, asarlarining ba’zi xarakterli belgilarini maxsus ta’kidlab o‘tadi.

4) davr, falak va ahli zamonadan shikoyat. Ma’lumki, N.ning butun ijodida davr nosozliklari va tole’ pastligidan nolish, falak javr-u jafosidan fig‘on chekish, zamona ahli kirdikorlaridan shikoyat motivlari keng ishlangan. Q.larda ham bu yetakchi mavzulardan biri bo‘lganligini qayd etish mumkin. “Ne tole’durki, har kimni desam yor” (“G‘.S.”), “Agar oqil esang uzgil jahon ahlidin ulfatkim”, “Kimgakim qildim vafo, vahkim, jafo podosh edi” (“N.Sh.”), “Nihoni igna sanchar yorlardin” (“B.V.”), “Kutubmen oncha g‘am-u yorlardin” (“B.V.”), “Ko‘rubmen oncha g‘am-u dard oshnolardin” (“F.K.”), “Jafolarkim, mening jonimg‘a yetmish dahr xalqidin” (“M.Q.”) va “Z-oshnayon on qadar ranj-u alam didam, ki nest” (“D.F.”) misralari bilan boshlanuvchi qit’alar shular jumlasidandir.

5) diniy-tasavvufiy mazmundagi qit’alar. “X.M.”ning har bir devonidagi Q.lar bo‘limi xuddi shu ruhdagi namunalar bilan boshlanadi. Bulardan tashqari fano, qanoat, faqr kategoriyalari, shuningdek, naqshbandiya tariqining shart-talablari haqida maxsus Q.lar ham uchraydi.

N. merosidagi necha yuzlab Q.larning mavzu doirasi ravshanki, yuqorida aytilganlar b-n cheklab bo‘lmaydi. Biz ularda o‘sha davr ijtimoiy-siyosiy voqealariga ishorani, ba’zi tarixiy shaxslar (amaldorlar, kotiblar, shoirning tanish-bilishlari) hayotidan lavhalarni ko‘ramiz, ona-ayollarni ulug‘lovchi namunalarga duch kelamiz. M-n, “B.B.” devonidagi “Sohibi a’zam Nizom-ul-muluk hukm bo‘ldi azal” misrasi bilan boshlanuvchi qit’ada vazir lavozimiga ko‘tarilgan shaxsning shoh qahri b-n tanazzulga uchrashi haqida so‘z bersa, ikkinchi bir qit’ada Xurosonga Rum mamlakatidan elchilar tuhfalar bilan kelganligi haqidagi ma’lumot mavjud. Bulardan tashqari, go‘zal so‘z o‘yinlari, yoqimtoy qochirim va nozik kinoya-ishoralar vositasida o‘quvchilar goh beg‘araz, quvnoq kulgi, goh iliq tabassum, gohida esa umuman yaxshi kayfiyat qo‘zg‘atuvchi yumoristik qit’alar (“Sharbatiy kar bo‘ldi ersa oqibat”, “Qilibtur Pahlavon Ne’mat tamanno”, “Xo‘b ekan chog‘daki mustag‘ni eding, kelmas eding”) va aksincha, mayna, masxara ohanglari aniq eshitilib turuvchi, muallif “men”ining salbiy bahosi yaqqol yuzaga chiqqan namunalar (M-n: “Turfa ish, ko‘rkim, falon har vaqtkim, qilg‘ay namoz”) uchraydi.

Parallelizm, tajnis, zidlash kabi badiiy san’atlar, ayniqsa, keng qo‘llanilgan shoir Q.lari ilg‘or g‘oya-motivni olg‘a suruvchi mo‘jaz yetuk asar darajasiga ko‘tarilgan bo‘lib, o‘quvchiga real estetik ta’sir ko‘rsatadi, uni kamolot sari undaydi. Xuddi shu jihatdan ham, “B.B.”ga yozgan “Debocha”dan N. o‘z Q.larini “Latofatomiz va nofi’” (Latofatli va foyda keltiruvchi, naf yetkazuvchi) deb baholaganida, “F.K.”dan o‘rin olgan maxsus Q.da esa, “hikmat suvi” b-n parvarish topgan kichik-kichik bog‘-gulzorlarga qiyoslaganda to‘la haqli bo‘lgan. Chindan ham, beistisno – har bir Q. zaminidan ezgulik va adolatni, insof va hallollikni, himmat va saxovatni targ‘ib etuvchi, ayni zamonda, ijtimoiy hayot va shaxslardagi illat va

nuqsonlarni, g‘ayri insoniy odat va intilishlarni goh jiddiy, bevosita va ochiq qoralovchi ohangda goh kulgi, kinoya vositasida, ko‘pincha esa pand-nasihat va tanbeh ruhida olg‘a surayotgan chin insonparvar va odil, mutafakkir va yuksak xulq-atvor sohibi, hayotning achchiq-chuchuklarini boshidan kechirgan barkamol muallif siymosi ravshan gavdalanib turadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Девони Фоний. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. – Т., 1961; Орзибеков Р. Лирикада кичик жанрлар. – Т., 1976; Абдуғафуров А.. Эрк ва эзгулик куйчилари. – Т., 1979; Ҳаққул И. Ижод иқлими. – Т., 2009.*

I.H., A.A.

QOBA QAVSAYN (ar.) – ikki yoy (yoki ikki qosh) oralig‘i; shunday yaqin masofa. Majoziy: nihoyatda yaqin. Bu ibora Qur’onda zikr qilinadi va Me’roj kechasi qurb manzilida Alloh va Muhammad (s.a.v.)ning o‘zaro yaqinlashuvini yoki yo‘lda Muhammad (s.a.v.) va Jabroil farishta oralaridagi masofa yaqinligini anglatadi. N. she’riyatida ham Q.Q. tushunchasiga murojaat qilingan. M-n:

Qoba qavsayn avji hosil ayladi,
La maalloh qurbi vosil ayladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик, 3-жилд. – Т., 2011 (Изоҳлар қисми); Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ғиёс ул-луғот. Жилд 2. – Душанбе., 1988; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. – Т., 1985.*

E.O.

QODIROV Muhammadjon (1941–2012, Farg‘ona) – f.f.n., dotsent. 1964–68-yy.da ToshDU (hozirgi O‘zMU)ning filologiya fakultetini tugatgan. Q.M.ning ilmiy faoliyatida N. asarlarining til xususiyatlarini o‘rganish markaziy o‘rinda turadi. U 1978-y.da “Alisher Navoiy nasriy asarlari tilida kelishik shakllarining qo‘llanishi” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

Olimning “Alisher Navoiy asarlari tilida tushum kelishigining qo‘llanishi” (ToshDU IA, “Tilshunoslik masalalari”, T., 1975), “Navoiy asarlari tilida qaratqich kelishigining formal va ma’no xususiyatlari” (“O‘zbek tili va adabiyoti”, 1976, 5-son), “Alisher Navoiy asarlari tilida jo‘nalish kelishigi formalari” (“Tilshunoslik masalalari”, T., Fan, 1978), “XV asr o‘zbek adabiy tili kelishik sistemasi haqida” (ToshDU IA, “O‘zbek tili leksikologiyasi va grammatikasi masalalari”, T., 1978) maqolalarida N. asarlari tilidagi kelishiklarning miqdori, shakliy va ma’no xususiyatlari atroflicha tahlil etilgan, hozirgi o‘zbek adabiy tili kelishiklar tizimiga ulug‘ N. davrida asos solingani ko‘rsatib berilgan. “Alisher Navoiy asarlari tilida chiqish kelishigining formal xususiyatlari” (ToshDU IA, “O‘zbek tilshunosligining aktual masalalari”, T., 1985) maqolasida esa XI asrdangina shakllana boshlagan chiqish kelishigining N. asarlari tilida to‘laqonli kelishik sifatida namoyon bo‘lgani, hatto ma’nolar ko‘lami jihatidan boshqa kelishiklardan ajralib turishi aniq misollar vositasida ko‘rsatib berilgan. Q.M.ning bir necha maqolalarida N.ning lingvistik qarashlari o‘rganiladi. “Alisher Navoiy – mohir tilshunos” (ToshDU IA, 1987), “Alisher Navoiy – tilshunos olim” (Sharqshunoslik instituti IA, T., 1995), “Navoiyning tilshunoslikdagi mahorati” (“Tilshunoslikning dolzarb masalalari”, T., Universitet, 2002) kabi maqolalarida ulug‘ mutafakkirning “M.L.” asari lingvistik qarashlari tahlil etiladi. N.ning so‘z, til nutq, madaniyati haqidagi fikrlari Q.M.ning “Alisher Navoiy so‘z qudrati va nutq madaniyati haqida” (“Adabiy meros”, 1989, 2 (48)-son), “Navoiy ijodida so‘zga munosabat” (“Maktubda o‘zbek va rus tillari va adabiyoti”, 1991, 5-son), “Zohid ishqin desaki...” (“Yozuvchi”, 2001, 24-mart), “tilingni ixtiyoringda asrag‘il...” (“Toshkent oqshomi”,

1989, 9-fevral) kabi ilmiy-ommabop maqolalarida sharhlab berilgan.

Olimning “Alisher Navoiy va hozirgi o‘zbek tilshunosligi” (“Navoiyga armug‘on”, 4-kitob, T.: Fan, 2004) deb nomlangan maqolasida hozirgi o‘zbek tilshunosligi ilmi N. tilshunosligi yo‘-rig‘idan ta’lim olishi, til va nutq faktlarini izohlashda sharqona usuldan foydalanish zarurligi haqida chaqiriq fikrlar aytiladi. “Alisher Navoiy va zamonaviy o‘zbek tili” (“O‘zbek tilshunosligi masalalari” T., 2006) maqolasida esa hozirgi o‘zbek adabiy tilining N.ning ulkan so‘z xazinasidan bahra olishi u-n qilinishi kerak bo‘lgan ilmiy-amaliy ishlar to‘g‘risida fikr yuritiladi. N. ijodini, asarlari tilidagi badiiy mahoratni targ‘ib qiluvchi “Alisher Navoiy – ikkinchi ming yillik dahosi”, (“Tafakkur”, 2001, 1-son), “Suv tagida gavharlar” (“O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”, 1991, 14-iyul), “So‘zlar jilosi” (“Qishloq haqiqati”, 1991, 23-yanvar), “Navoiyning “Xamsa” asarida muammo elementlari ” (“Tilshunoslik va adabiyotshunoslik masalalari”, Andijon, 2002) kabi publitsistik maqolalari ham e’lon qilingan. Muallifning “Navoiyni tushunamizmi?” maqolasida shoirning hozirgi avlodlari uning asarlari mazmunini to‘laroq tushunib yetmasligi holatining tarixiy-ijtimoiy sabablari mavjudligi haqida gap boradi. Mustaqillik u-n, adolat u-n kurash boshlangan yillari Q.M.ning ulug‘ bobomiz N.ga ramziy roz aytish, nido qilish uslubidagi “Roz” deb nomlangan siyosiy chaqiriq mazmunidagi maqolasi e’lon qilindi va jamoatchilikning mustaqil Vatan u-n kurash tuyg‘usini uyg‘otishga xizmat qildi.

Ad.: *Қодиров М. Алишер Навоий насрий асарлари тилида келишик шаклларининг қўлланиши. Фил.фан.ном-ди дис-си. – Т., 1978.*

E.U.

QODIROVA Mahbuba – adabiyotshunos va matnshunos, f.f. d-ri (1975), O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi (1995). Mumtoz o‘zbek shoiralari – Zebuniso, Uvaysiy, Nodira, Dilshod Barno, Muslihabegim Miskin, Saodat Mushtariy, Anbar Otin kabi ijodkorlarning hayoti va ijodiy merosini keng ko‘lamda o‘rganib, maqolalar, ilmiy risolalar, monografiyalar yozgan va ularning devoni hamda she’riy to‘plamlarining davriy nusxalarini nashrga tayyorlagan. “XIX asr o‘zbek shoiralari ijodida inson va xalq taqdiri” kitobida (1977) shu davr adabiyoti, Qo‘qon adabiy muhiti va, xususan, shoiralari haqida qimmatli ma’lumotlar bitgan.

U Nodiraning “Devon”ini nashrga tayyorlar ekan, shoiraning devoniga mahorat b-n yozgan debochasiga alohida to‘xtalib, uning o‘zbek lirikasi tarixida dastlabki mukammal debocha muallifi sifatida N. an’analariga ergashganiga diqqat qaratgan. Q.M. Nodiraning hayoti, devonlari, shoira lirikasining mavzusi, obrazlar olami, timsollari, shoiraning fojiali o‘limi haqida alohida “Nodira” nomli kitob ham yozgan. U kitobining “Shoira devonlari” va “Muhabbat va hayot lirikasi” nomli boblarida Nodiraning debocha yozishida, obrazlar olamida, mavzular ko‘lamida, g‘azal yaratish uslubida N. an’analariga ergashgani xususida gapirgan.

Ad.: *Қодирова М. Нодира ҳаётида ижтимоий саҳифалар // ziyouz.uz.; Қодирова М. Нодира (ҳаёти ва ижоди). – Т., 1965; Қодирова М. Нодира девонлари // ziyouz.uz.*

B.R

QOZI (ko‘pligi quzot) – kishilarning o‘zaro da’volarini ko‘radigan va shariatga asoslangan holda hukm chiqaradigan amaldor. Q. atamasi arabcha so‘z bo‘lib, ijrochi, amalga oshiruvchi, hukm qiluvchi(chiqaruvchi) kabi leksik ma’nolarni bildiradi. Yana Alloh, falak, charx, Mushtariy sayyorasi singari ma’joziy-ko‘chma ma’nolarda ham keladi. N. islom huquqshunosligining bilimdoni sifatida o‘zi yaratgan betakror asarlari matnida Q. atamasini ham o‘ziga xos tarzda ishlatgan, ya’ni, asosan, shariat qonunlari asosida hukm va ijro ishlarini olib boruvchi mansabdor shaxs ma’nosida va o‘rni b-n an’anaviy uslubda

o‘zigacha mavjud bo‘lgan majoziy-ko‘chma ma’nolarda ham san’atkorona qo‘llagan, deyish mumkin. Ammo u “N.M.”da berilgan Q. Hamiduddin Noguriy (q.s.) fiqrasida qozi tushunchasini akobir so‘zining ma’nodoshi sifatida izohlaydi: “Hamono andoqki, ko‘prak akobirni Xurosonda shayx derlar va Samarqandda xoja va Rumda bob va Hindda qozi derlar”. N. “M.N.” tazkirasida yetti nafar Q. ijodidan namunalar keltirgan. M-n, Xuroson davlatining qoziyul-quzoti (bosh qozi, eng yuqori darajadagi qozi – B.T.) Muhammad Imomiy haqida quyidagicha ma’lumot beradi: “Qozi Muhammad Imomiy – mutadayyin va xushtab’ kishi erdi. Xurosonning qoziyul-quzotlig‘ mansabida mutammakkin bo‘ldi. Va nazmg‘a gohi mashg‘ul bo‘lur erdi. Ash’ori Hiriy shahrida el orasida bor. Bu matla’ aningdurkim:

Guftamash gul-gul baromad rangi ruxsori zi mul,
G‘unchayio‘dartabassumshud,kiazgulhochigul.

Va qabri Hiriyda imom Quzotning go‘ristonidadir”

Maz.: Gul-gul desam, may ichra chehrang namoyon bo‘ldi. G‘unchasi shunday tabassum qildiki, uning oldida boshqa gullar hech narsa bo‘lib qoldi.

Yana tazkirada N. yozib qoldirgan Samarqand taxtining yakqalam qozisi va “Ulug‘bek Mirzo” madrasasining mudarrisi Xoja Xurd, Sulton Ya’qub tarbiyat qilgan Q. Iso hamda Sabzavor va Isfaroyinda qozilik qilgan, Amir Xusravning “Daryoyi abror”iga javob yozgan qozi Mavlono Abdulvahhob to‘g‘risidagi ma’lumot-u izohlar ham kitobxonda, birinchidan, o‘zgacha taassurot, zavq uyg‘otsa, ikkinchidan esa, uning mahorati, nasriy uslubiga e’tirof uyg‘otadi. Q. ning qozixonada ramziy guvohlar – adl-u insof yordamida shariat hukmini belgilashi b-n bog‘liq poetik lavhani N. “H.A.”ning “Shoh G‘oziy” hikoyatida tasvirlab bergan. “M.Q.” asarining 12-faslini “Quzot zikrida” deb nomlaydi va: “Qozi islom binosig‘a arkondur va musulmonlar xayr va sharrig‘a nofizi farmondur”, – deya ta’riflaydi, qozilarning faoliyatidagi ijobiy, salbiy jihatlarini tahlil qiladi, hatto xulosalarni maxsus qit’a bilan yakunlaydi. Ular haqidagi zikrlarda oddiy bayon emas, balki hayotiy, ibratli voqealar tahlil va talqin qilingan. “N.M.”da shoir Q. Sharafuddin Buhayro, Q. Shafe’uddin Buhayro, Qozi Rais va Qozi Hamiduddin Noguriy kabi to‘rt nafar qoziga alohida fiqra bag‘ishlagan. Ayniqsa, Q. Raisning ikki abushqasi bor buzuqi ayol va uning noxolis vakilining qilmishlarini Dor ul-qazoda ko‘rgani masalasi va mahkamada u haqda chiqargan “sangsor qilmak” hukmi b-n bog‘liq holatlar ibratlidir. N. davlat arbobi sifatida qozilar faoliyatiga, bu mansabga halol, vijdonli kishilarni tayinlanishiga va ularning adolat b-n ish yuritishlariga e’tibor bergan. Jumladan, shoir, “M.”idagi bir maktub ham bu xususda ma’lumot bera oladi. Unda, eng avvalo, N.ning Q.larni tayinlash, bo‘shatish ishlariga ham daxli bo‘lganligi ko‘rinadi. Maktub mazmunidan Q.lik mansabini egallab turgan kishining vafot etgani va bu vazifaga bir kishini tayinlash zarurati yuzaga kelgani va shoh shu to‘g‘rida N.ga murojaat qilgani anglashiladi. Xatda N.ning muxtasar javobi bayon qilingan. Shoirning “N.Sh.” devoni tarkibidagi bir qit’a mazmuni ham shu mavzuga aloqador. Unda N.ning Riyoziy degan kishining Q. bo‘lishiga rozi emasligi ifodalangan. Riyoziyning bu mansabni egallashiga qarshi ekanligini N. uning fiqh ilmidan bexabarligi b-n asoslaydi:

Riyoziy bo‘lsa qozi, bas, ajabdur,
Kerakkim fiqh ilmini bilsa qoziy.
Anga chun fiqhdin aslo xabar yo‘q,
Ne yanglig‘, bas, bo‘lur qozi Riyoziy.

N.ning Q.lar haqidagi ma’lumotlaridan uning mazkur soha hamda kasbning sir-u asroridan amir sifatida xabardor bo‘lgani seziladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Муншаот. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик, 2-жилд. – Т.,2011; Алишер Навоий. Маҳбуб*

ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2008; Навоий асарлари луғати; Фарҳанги забони тожики. Жилди 2; Ҳакимов М. Шарқ манбашунослиги луғати. – Т., 2013; Ражабова Б. Навоий ижодида тарихий-ҳуқуқий атамалар // Ўзбек тили ва адабиёти. 2015. 4-сон.

Q.E., B.R.

QOZI IXTIYORIDDIN HASAN TURBATIY – Qozi G‘iyosiddin Turbatiyning o‘g‘li bo‘lib, oliy fazilatlari va yuqori bilimi bilan boshqa qozilardan ajralib turardi.

U yoshlik chog‘larida Zova viloyatidan Xuroson poytaxti Hirotga kelib, diniy bilimlarni o‘rganishga kirishgan. Qisqa muddatda bu sohadagi bilimlarni puxta egallab olganidan keyin, fatvo yozish, qozilik hukmi, mulk va to‘lov hujjatlarini chiqarish huquqini qo‘lga kiritgan. Kotiblik va shoirlik san’atini ham yaxshi o‘zlashtirib olgan.

G‘olib xoqon (Boyqaro) podshohligi zamonining oxirlarida qozilik mansabiga erishgan.

O‘z qobiliyati va fazilatlari b-n Sulton Husayn Boyqaroning e’tiborini qozongan Q.I.H.T. Abulfath Muhammad Shayboniyxon Hirotni o‘z tasarrufiga olganidan keyin ham ana shu mansabda qolgan. Shayboniyxonning o‘limidan keyin esa o‘zi tug‘ilib o‘sgan yurtga qaytib, dehqonchilik bilan shug‘ullangan.

Q.I.H.T. hijriy-qamariy 920 (milodiy 1514)-y. kasallikka chalinib, olamdan o‘tgan va Turbat qishlog‘ida o‘z ota-bobolari maqbarasida dafn etilgan.

Q.I.H.T.ning chiroyli so‘z namunalarini yozuvchi qalami mahsullari jumlasidan bo‘lgan “Iqtibosot” (“Iqtiboslar”) va “Muxtor ul-ixtiyor” asarlari o‘sha zamon ilm ahli orasida mashhur bo‘lgan.

Uning Hirot jome masjidida N. tomonidan marmartoshdan yasatilgan minbarning qurilishi sanasi to‘g‘risida yozgan quyidagi qit’asi mashhurdir:

Az himmati buzurge shud minbare mukammal,
K-az g‘oyati taraffu’ bar arsh sar kashida.
Hargiz kase nadida minbar ba sangi marmar,
Ta’rix shud hamon, k-o‘ hargiz kase nadida.

Tarj.: Ulug‘ning himmati tufayli mukammal bir minbar qurildi. O‘ta balandligidan Arshga bo‘y cho‘zgan edi. Haligacha hech kim marmardan yasalgan minbarni ko‘rmagandi. Uning qurilgan yili ham haligacha hech kim ko‘rmagan o‘sha narsa bo‘ldi.

Ushbu qit’ada “haligacha hech kim ko‘rmagan o‘sha narsa” deganda, marmardan yasalgan minbar anglashilib, ushbu iboraning forschadagi asli رمرم گـنـسـب ربـنـم “minbar ba sangi marmar”ni abjad hisobi asosida raqamlarga o‘girsak, 904 soni hosil bo‘ladi. Shundan ma’lum bo‘ladiki, ushbu marmar minbar hijriy-qamariy 904-y. da, ya’ni milodiy 1499-y.da qurilgan.

Ad.: *Ғиёсиддин ибн Ҳумомиддин Хондамир. Ҳабиб ус-сияр фи ахбори афрод ал-башар (Инсонлар қиссаларидан энг яхши таржимаи ҳоллар) 4-жилд // Устод Жалолиддин Ҳумоий нашрга тайёрлаган // – Теҳрон, 1954.*

K.R.

“QONI JUVONMARD ILA...” – “H.A.”-ning 7-maqolotida qanoat va mehnat ulug‘langach, ifoda etilgan fikrlarga ilova sifatida keltirilgan 28 baytli hikoyat sarlavhasi ana shu so‘zlar bilan boshlanadi. Unda tasvirlanishicha, “Fors navohiysi (o‘lkasi)din ikki rafiq Chin (Xitoy)ga qarab ravona bo‘ladilar. Ulardan biri o‘ta qanoatli, ikkinchisi o‘ta tamagir ekan. Ular safarlari davomida yo‘l o‘rtasida yarmi yer tagida, yarmi chiqib turgan toshdagi yozuvga duch kelibdilar:

Kim kishi gar emgak o‘tin kuydurur,
Toshni yana yuzig‘a aylandurur.

Anda bitiklik durur afsonaye,
Kim bu navohiy aro vayronaye.

Borki, ostida turfa ganj,
Olg‘ay oni har kishi ko‘rsa bu ranj.

Har kishi bu ranjidin o‘lsa yiroq,
Sabr-u qanoat boridin yaxshiroq.

Bu so‘zlarni o‘qigan “tomi” (tamagir) ko‘proq mol-davlat to‘plashga shoshilib, qazishga tushib ketibdi. “Qoni’” (qanoatli) yozuvning eng so‘nggidagi nasihatlarga amal qilib, sabrni tanlabdi va yo‘lida davom etibdi. U erta tongda bir shaharga yetib boribdi. Shahar ahli uni zo‘r hurmat b-n qarshilabdilar. Bu yerda ajib bir odat bo‘lib, mabodo shoh boqiy dunyoga rihlat qilsa, bu fojia xalqdan sir tutilib, tongda shaharga eng birinchi kirgan yo‘lovchining boshiga toj kiydirib, qo‘liga shohlik uzugini taqib, mulk-u mamlakat, xayli sipohga shoh qilib ko‘tarishar ekan. O‘sha rasm bo‘yicha uni ham podshoh qilib ko‘tarishadi.

Yaqin atrofdagi vayronaga ko‘mib qo‘yilgani toshga o‘yib yozilgan, aytilgan joyda bor-yo‘qligi mavhum, boz ustiga, birovning haqi bo‘lgan boylikka aldanmagan jo‘mardni qanoat mamlakatiga podshoh qiladi, uni shoir olqishlaydi, bu fazilatini elga o‘rnak qilib ko‘rsatadi. Hikoyat so‘ngida N. o‘ziga-o‘zi tanbeh berib, birovdan uch pul tama’ qilmaslikni, bor bo‘lsa, boshqalarga bersang – bu karamlilik belgisi ekanini uqtiradi. Oson boylik topish ilinjida behuda mashaqqat chekkan “tomi’”ni tamagirlik azobi xor-zor etganidan ogohlantiradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

S.O‘.

QOON (xoqon) – Chin hukmdorlarining unvoni, buyuk podshoh, imperator. N. “F.Sh.” dostonida shu ma’noda ko‘p marotaba qo‘llagan, m-n:

Necha bo‘lsa Xito mulkida Xoqon,
Solib biymi aning bag‘ri aro qon.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011.*

B.R.

QORATOG‘ – tarixiy-geografik atama, tog‘ nomi. N. “F.Sh.”ning XXII bobida Farhodning ajdar vodiysiga borganini va uni tor-mor qilib, ajdaho g‘oridan Afrudun xazinasini topganini va barcha boyliklarni otasi hamda qo‘shiniga hadya qilganini bayon qilgan. Shu bobda N. Qora tog‘ni yodga oladi:

Tushurdilar cherikni xurram-u shod,
Bo‘lub ajdar g‘amidin barcha ozod.

Ne xushdur ajdar olmak ranj birla,
Kishi qilmoq tana’um ganj birla.

Alar ul ajdahodin forig‘ulbol,
Bo‘lub ganji farog‘at birla xushhol.

Quyosh Farhodi chun tortib sinon tez,
Qaro tog‘ ajdarig‘a bo‘ldi xunrez.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011.*

B.R.

QOSID – Xabarchi, xat tashuvchi, elchi, chopar, intiluvchi kabi ma’nolarni anglatuvchi so‘z. N.ning lirik va nasriy asarlari matnida keng qo‘llangan shaxs oti hamda badiiy obraz. Ulug‘ shoir “V.” asarida shohning rasmiy chaqiruvi b-n Samarqanddan Hirotga qaytganligi haqidagi ma’lumotda qosid so‘zini davlat yorlig‘ini keltirgan Husayn Boyqaroning chopari, ya’ni zamondoshi sifatida qo‘llagan: “Nogoh saltanat gulshanidin inoyat nasimi esa kirishti va xilofat borgohidin hidoyat qosi-

di etishti va davlat manshurin ilgimga berdi”. Shoir “F.Sh.” dostonida qosid badiiy obrazini san’atkorona yaratgan va bu badiiy obraz Shirinning maqsad-u muddaolarini Sheruyaga yetkazgan elchi obrazidir. N. bu lirik lavhada qosid-maqosid shaklida betakror qofiya ham yaratgan:

Borib Sheruyag‘a farxunda qosid,
Chu qildi arz bu yanglig‘ maqosid.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Вақфия. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

B.R.

QOSIM ALI MUSAVVIR – (XV–XVI asr) olim, fozil, mohir musavvir. Kamoliddin Behzodning shogirdi, u ustozi b-n Hirotda Tabrizda yashagan, zamondoshlari uni “chehrakusho”, ya’ni “portret chizuvchi” deb ataganlar. Q.A.M. N. devonining bir qo‘lyozma nusxasiga ishlangan miniatyuralar mualliflaridan biri. Bu asar 1485-y.da kitobat qilingan bo‘lib, undagi ikki miniatyura Q.A.M.ga tegishli (Oksford shahridagi Budlian kutubxonasida saqlanmoqda). Yana bir miniatyura N. devonining boshqa qo‘lyozma nusxasida mavjud bo‘lib, AQSHning Metropolitan muzeyida saqlanmoqda. Bu miniatyuralarda oltin suvi yordamida go‘zal tabiat manzarasi aks ettirilgan.

Ad.: *Хондамир, Равзат ус-сафо, ШҚМ. инв.1716. 7-жилд; Усмонов О. Камолиддин Беҳзод ва унинг наққошлик мактаби. – Т., 1977.*

Muh.A.

QORABOG‘I ARRON – “S.I.” dostonida Doroni mag‘lub etib, unga qaram mamlakatlarni qo‘lga kiritgan Iskandarning qishlamoq u-n to‘xtagan oromgohi shunday nom b-n atalgan:

Ki, chun qildi qishloq azmig‘a shoh,
Qorabog‘i Arronni oromgoh

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

M.A.

QORAN – “F.Sh.” dostonida Farhodning ustozlaridan biri. U toshtarosh usta bo‘lgan. Dostonning XV bobida N. xoqonning vaziri Mulkoro afsonaviy Eram bog‘iga monand 4 qasr qurilishiga sarkor va me’morlar tayin qilib, ish boshlab yuborgani, Farhodning esa hunarmandlar san’atini tomosha qilib, toshtarosh Qoran ishidan hayratga tushib, uning san’atini o‘rganish ishtiyoqida yongani bayon etiladi. Qoran Farhodga o‘zini shunday tanishtiradi:

Otim Qoran, ishim xud oshkoro,
Qo‘lumda tesha-yu ollimda xoro.

Bukim so‘rdungki metin birla tesha,
Nechuk sinmay yo‘nar xoro hamesha?

Aning suv bermagida holati bor
Ki, andin aylamasbiz elga ixbor.

Su bersa o‘yla afzorig‘a ustod,
Yuz il xoro demaykim, yo‘nsa po‘lod.

XVI bobda esa Farhodning Qorandan toshyo‘narlik, Moniydan naqqoshlikni, boshqa hunar va san’atlarni butun nozikliklari bilan o‘rganganini haqida bahs yuritiladi. Farhod Arman yurtida Qorandan o‘rgangan barcha ilmlarini ishga solib, hammani hayratga soladi. Arman xalqini suv muammosidan qutqarib, ham millat, ham Shirinning muhabbatini qozonadi:

Aningdek qildi xoro yo‘nmog‘in virdi
Ki, yuz Qoran qoshida bo‘ldi shogird.

Farhod vafoti oldidan qarindosh-u aziz birodarlari qatori Qoranni ham yodga oladi:

Yana Qorang‘a ham mendin salom ayt,
Nekim payg‘om qilg‘umdur, tamom ayt!..

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011.*

Z.R.

QORAXON – “S.I.” dostonidagi personaj. Doroning o‘ziga qaram o‘lkalardan Iskandarga qarshi urushga tayyorgarlik ko‘rish maqsadida askarlar yig‘ish lavhasida Hind elidan kelgan lashkarboshinig nomi:

Xito mulkidin Mangu-qoon kibi,
Yana Hind elidin Qoraxon kibi

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

M.A.

QORI MUHAMMADYUSUF KOTIB SHAHRISABZ VALADI MULLO MUHAMMAD – XIX asr ikkinchi yarmida yashagan shahrisabzlik mohir xattot, Buxoro xattotlik maktabi vakillaridan. N.ning “Terma devon”laridan birini ko‘chirgan. O‘zR FAShI Inv. № 4487. 403 v. Buxoroda 1243–1827- y.da buxoriy nasta’liq xatida kitobat bo‘lgan.

Ad.: *Садр Зиё, Тазкират ул-хаттотин, ШҚМ, инв.1304; М. Ҳакимов, Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. – Т., 1991; Собрание восточных рукописей академии наук Узбекистан. VII. – Т., 1964.*

Muh.A.

QORUN – butun Sharq, jumladan, o‘zbek adabiyotida had-hisobsiz boylik sohibi va ayni zamonda, o‘ta xasis ramziga aylanib ketgan afsonaviy shaxs. U Bani Isroil xalqi orasida ilm-u fazilati ziyoda, juda xushsurat va Muso (a.s) ning yaqin qarindoshlaridan bo‘lgan. Q.ni Muso (a.s.) tarbiyalaydi, o‘z davridagi barcha nodir va nozik ilmlarni uning ta’limi va ko‘magida egallaydi. Jumladan, kimyo fanini ham juda puxta o‘zlashtirib, boyib ketadi. N.ning yozishicha, xazinalarining kalitlari qirq xachirga yuk bo‘lardi. Bani Isroilning aksariyati unga bog‘lanib qolgan edilar. Muso (a.s.) Q.dan molining mingdan birini zakotga berishini so‘raydi. U rozi bo‘lmasdan, aksincha, Bayt ul-Muqaddasdagi Horun (a.s)ga tegishli bo‘lgan “Sandiq ush-shahoda”ni talab qiladi. Muso (a.s.) “senga shuncha dov-u daska berilganidek, bular ham Allohning izni bilan unga berilgan”, deya rad javobini beradi. O‘rtalarida adovat paydo bo‘ladi. Q. bir ayolni Muso (a.s.)ga qarshi yollaydi. Unga ko‘p mol berib, Muso (a.s.) xaloyiqqa va’z va nasihat qilayotganda, o‘rnidan turib, “men bilan zino qildi”, – deb tuhmat qilishni va uni zinokor hukmi bilan Isroil xalqiga topshirib, jazolatishni istaydi.

Payti kelib, ayol o‘rnidan turib, tuhmat qilaman, deb turganda Alloh uni rost so‘zlatadi va Q.ning nayranglarini aytib beradi. Qorun uzr so‘rab, Muso (a.s.)ga iymon keltiradi. Muso (a.s.) Q.ning ishidan g‘azablanib, Haqqa iltijo qilib turganda, Jabroil (a.s.): “Biz yerni senga bo‘ysundirdik, Q.ni nima qilsang ixtiyoring”, – degan Haqning hukmini keltiradi. Muso (a.s.) g‘olib bo‘lganini biladi va “Qorunni tanlagan unga ergashsin, meni ixtiyor qilgan, menga ergashsin”, – deya xitob qiladi. Odamlar Muso (a.s.)ga ergashadilar. Shunda Muso (a.s.) yerga Qorunni yutishni buyuradi. Yer uni oshig‘igacha yutadi. Q. Muso (a.s.)ni sehrgarlikda ayblaydi. Muso (a.s.) yana yerga yutishni buyuradi. Q.ni tizzasigacha yutadi. U vahimada qolib, najot so‘raydi. Muso (a.s.) qabul qilmasdan yerga amr etaveradi va yer uni quyiroq tortaveradi, oxiri yer uni to‘liq yutib yuboradi. G‘oyibdan ovoz keladi: “Ey Muso, Qorun sendan yetmish marta iymon so‘radi va topmadi. Bir marta bizdan so‘raganda qabul qilardik”. Muso (a.s.): “Men ham sendan iymon so‘rashini kutgandim, nachora, taqdir qilmagan ekansan”, – deb javob beradi. Bu voqealardan keyin odamlar Muso (a.s.) Q.ni moli u-n o‘ldirdi, degan gumonga boradilar. Muso (a.s.) ga mol kerak emasdi, duo qiladi, barcha boyliklarni yer

yutadi. N. “T.A.H.” asarida “Qorun qissasi”ni keltiradi. Diniy ruhdagi bu rivoyatda bayon etilishicha, Q. kelishgan, xushbichim va fozil kishi bo‘lgan, avvalida ilm-u fanda, ayniqsa, kimyo sohasida jiddiy yutuqlarga erishgan, natijada, katta boylik to‘play olgan, “Va aning mol va tajammuli (zeb-u ziynatlari) Ul yerga yettikim, – deb yozadi Navoiy – xazoyin va kunuz (xazinalar va yerga ko‘milgan boyliklar)ning kalitlarini qirq xachir ko‘tarur erdi”. O‘sha rivoyatga ko‘ra, Qorun haddan tashqari xasis va ziqna bo‘lganligi, firibgarligi va g‘ururga berilganligi u-n qattiq jazoga mubtalo bo‘ladi – uning o‘zini va hamma boyliklarini yer yutib yuboradi.

N. she’rlarida Q. xasis boy timsoli. Sehrjodu va turli yo‘llar bilan topgan xazinasi esa foydasiz va beqadr boylikning ramziga aylanib ketgan. Qorun o‘limi ham fojiali, ham ibratli. N. Q. voqeasini talmeh sifatida keltiradi. Bu orqali xasislik va ochko‘zlikni qoralaydi. Moldunyo zarur paytda sarflanmasa, kishining ehtiyojlariga asqotmasa, foydasi yo‘qligini eslatib o‘tadi. N. birgina “G‘.S.” devonida Q. nomini sakkiz marta tilga oladi. Xasislik ramziga aylangan Qorun timsoli orqali behuda o‘tgan uzoq umrning ham, kishi hayoti va osoyishtaligi u-n asqotmagan mol-dunyoning ham foydasiz ekanligini eslatib o‘tadi.

Moldin umrungg‘a osoyish agar yetmas ne sud,
Nuh umrin hosil etsang, ganji
Qorun qozg‘anib?

Shu devondan o‘rin olgan yana bir g‘azalda Q. Hotam, Jamshid, Afridunlar sirasida tilga olinadi. Hayotning o‘tkinchi ekanligiga dalil sifatida katta boylik va sha’n-u shavkat sohiblari bo‘lmish bu shaxslarning ham dunyodan o‘tganlari ta’kidlanadi, bas, shunday ekan, berilgan umrdan iloji va imkoni boricha yaxshilik yo‘lida foydalanishga da’vat etiladi:

Qani Hotam, qani Qorun, qani Jamshid-u Afridun?!
Bas, ehson qil sanga gardundin adno e’tibor
o‘lg‘och!

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Ислом. Энциклопедия. – Т., 2004; Носируддин Бурҳониддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. 2 жилдлик, 2-жилд. – Т., 1991; Қуръон қиссалари // Пайғамбар қиссаси. – Т., 2013; Пайғамбарлар тарихи (Исломият тарихи). – Т., 2014.*

A.A., S.R.

QORUN GANJI – Muso (a.s.)ning amakivachchasi Qorunning afsonaviy xazinasi. Qissa-yu rivoyatlarga qaraganda, Qorunning 440 ming xalta oltin-kumushi bo‘lgan. U go‘yo o‘zining aqli-yu uddaburonligi va kimyogarligi orqasida shunday boyib ketgan emish. Aslida ulumi g‘ariba va fununi ajibani Alloh taolo Muso (a.s.)ga bergan bo‘lib, u mazkur ilmlardan kimyoni imkoni yetgani qadar Qorunga o‘rgatadi. N.ning yozishiga ko‘ra, Qorun sehrgarlik ilmiga qiziqib, u b-n shunchalik qattiq mashg‘ul bo‘ladiki, mol-u dunyosi yer-u ko‘kka sig‘may, xazinalarining kalitlarini 40 ta xachir ko‘tarib yurar edi. Lekin u qancha boy bo‘lsa, shuncha baxil bo‘lgan. Oxir-oqibat Muso (a.s.)ning duoyibadiga uchrab, Qorunni butun xazinasi b-n birga yer yutadi. Q.G. – Sharq adabiyotida boylik, baxillik, kibru g‘urur, hirsu havas, mol-u dunyo ramzi bo‘lib keladi. Bu majoziy obrazdan N. ham o‘z asarlarida keng foydalangan. M-n:

Chu ko‘mdung yerga,Qorun ganji hukmi tutti,
ey mun’im,
Tutaykim naqd ila bo‘ldi xizonang ganji
Qorundek.
Podshohekim, qanoat maxzanin istar, erur
Bir gadodekkim, xayoli ganji Qorun soridur.

“G.Q.” N. ijodida cheksiz mol-dunyo timsoliga aylanib ketgan. Insonlar tabiatini yaxshi bilgan, hayotni sinchkovlik bilan kuzatgan shoir

bir qit’asida mazkur iborani ishlatadi. Tavakkul qilmasdan, podsholardan boylik tama qilib, ular oldida yaltoqlanib xizmat qiladigan kishi oqibat bir tovoq oshga qul bo‘ladi xolos, deydi:

Tavakkulni ulkim qo‘yub, xotirig‘a
Tushar shoh ollinda qulluq havosi.

Nasibi aning bir ayoq osh erur bas,
Agar ganji Qorun erur muddaosi.

Biravkim, bo‘lur bir ayoq osh uchun qul,
Yuziga keraktur qazonning qarosi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011.*

E.O., S.R.

QOSIM ALI CHEHRAKUSHO (XV asr 2-yarmi – XVI asr 1-yarmi) − musavvir, xattot. Kamoliddin Behzodning shogirdi. N. kutubxonasida musavvirlikdan tahsil olib, uning tarbiyasi va rahnamoligida zamonasining yetuk musavviri, naqqoshlar ustodi darajasiga ko‘tarilgan. 1510-y. Shoh Ismoil Safaviy Hirotni bosib olgach, Seyistonga ketib, mudarrislik qiladi. 1522-y. Behzod Tabrizda shoh kutubxonasining kitobdori etib tayinlanganidan keyin Q.A.Ch. ham uning huzuriga boradi.

U 1480–1485-yy.da N.ning shahzoda Chuchuk Mirzo b-n tik turib suhbatlashayotgan holatdagi suratini chizgan. Unda shoirning 40-45 yoshlardagi siymosi aks ettirilgan. Hassaga suyanib turgan bo‘lsa-da, qaddini tik tutib turibdi. Boshida did b-n o‘ralgan salla. Yoqasiz oq ko‘ylak ustidan uzun ko‘k kamzul va uning ustidan jigarrang chakmon yoki qabo kiygan.

Suratning ustki qismiga “Surati dilpazir Mirzo Chuchuk bo Amir beshibhu nazir Nizomiddin Alisher”, pastiga esa “Amali al-faqir Ali” deb yozib qo‘yilgan. Surat Turkiyaning Istanbul shahridagi To‘pqopu muzeyida saqlanadi. U “Guliston” jurnalida e’lon qilingan.

Ad.: *Норқулов Н. Темурийлар даври маданияти тарихидан лавҳалар. – Хоразм, 1996; Хондамир. Хулосат ул-ахбор // Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985; Абдуқодиров А. Амир Алишер Навоий. – Хўжанд, 2013.*

E.O.

QOSIM ANVOR – (taxallusi; to‘liq ismi: Amir Sayid Qosim Anvor Tabriziy, 1355, Tabriz − 1433, Jom) – mutasavvif shoir. Temuriylar davridagi tasavvufning yirik namoyandalaridan bo‘lgan, yoshligidan Shayx Sadriddin Ardabiliyga murid tushib, “sufiya odob va tariqin andin takmil qilib, shayx ishorati bila Xurosong‘a keldilar va oz vaqtda xaloyiq Mir xizmatig‘a firifta bo‘lub, g‘avg‘o qila boshladilar. Podshohi zamon Mirga ixroj hukmi qildi. Balx va Samarqand sari borib, muddate bo‘lub, yana dor us-saltanat azimati qildilar, yana Chig‘atoy mirzodalari, balki ulus ozodalari murid bo‘lib, hujum qila boshladilar. Ravishlari pok erdi va nafaslari otashnok. El bag‘oyat alar nazmlarig‘a moyil va she’rlarin o‘qumoq va bitimakka rog‘ib bo‘ldilar. Har oyinakim, devon jam’ qilurga bu amr bois bo‘ldi va “Anis ul-oshiqin” otlig‘ muxtasarroq masnaviy ham nazm qildilar va tarje dag‘i dedilar”. Arab va fors tillaridan tashqari, yunon va turkiy tilni ham bilganligi va ularda she’rlar yozganligi naql qilinadi. N.ning ma’lumot berishicha, uning tariqatdagi maqomi she’riyatdagi darajasidan baland bo‘lgan. “Alarning rutbasi shoirliq poyasidan yuqoriroqdur va valoyat ahli zumrasida vasfdin toshqariroq, ammo chun haqoyiq va maorif adosida nazm libosi dilpazirroqdir uchun iltifot qilur ekandurlar, tayammun jihatidan bu muxtasarni alarning sharif ismlari bila ibtido qilildi”. Asli ozarbayjonlik bo‘lib, ustozi Ardabiliyning da’vati bilan avval Jilonga borgan, so‘ng Xurosonga kelgan. Asosan Hirotda yashab, keyin hurufiylikda ayblanib, Samarqandga surgun qilingan.

Bir muddat Balx va Samarqandda bo‘lib, yana Hirotga qaytgan. Umrining oxiri Jom viloyatida o‘tgan. Uning va’zlari va she’rlari Hirotda nihoyatda mashhur bo‘lgan. Yosh Alisher o‘qigan va yod olgan ilk she’rlar ham Qosim Anvor qalamiga mansub edi. M-n:

Rindem-u oshiqem-u jahonso‘z-u joma chok,
Bo davlati g‘ami tu zi fikri jahon chi bok, –

baytini uch yoshli Alisher yod aytib, hammani qoyil qoldirgani ma’lum. “Bu faqir avval nazmekim, o‘rganibmen, bu so‘nggi matla’dur. Hamono uch yosh bila to‘rt yoshning orasida erdim, azizlar o‘qumoq taklifi qilib, ba’zi hayrat izhor qilurlar erdi”.

Xo‘ja Ahror yoshlik ayyomidan Q.A. huzurida ko‘p bo‘lib, uning iltifotiga sazovor bo‘lgan. U ham Samarqandga kelib, bir necha marta Xo‘ja Ahror suhbatida bo‘lgan.

Q.A.ning Eronda Said Nafisiy tomonidan chop etilgan kulliyoti shayx-shoirning g‘azal, tarje’band, marsiya, qit’a, ruboiy, masnaviy janrlaridagi she’rlari, “Amir Temurni ko‘rish voqeasi bayoni” manzumasi, “Sad maqom dar istilohoti so‘fiya” (“Tasavvuf istilohlaridagi yuz maqom”), “Anis ul-orifin” (“Oriflar do‘sti”) masnaviylari, “Risolayi savolu javob” (“Savol va javob risolasi”), “Risolayi dar bayoni ilm” (“Ilm bayoni haqida risola”) risolalari va turkiy muammolarini o‘z ichiga oladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ.10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар бўстони. – Т.,1981; Абдураҳмон Жомий. Нафаҳот ул-унс // Осор. Дар 8-жилд. Жилд 8. – Душанбе, 1990; Ўринбоев А., Ҳасаний М. Навоий замондошлари мактубларида. – Т., 1990; Буюк сиймолар, алломалар. 2-китоб. – Т., 1996; Норқулов Н. Темурийлар даври маданияти тарихидан лавҳалар. – Хоразм, 1996; Шарафиддин Роқимий. Тарихи томм. – Т., 1998; Куллиёти Қосим Анвор. Бо тасҳеҳу муқобилаву муқаддимаи Саид Нафиси. – Теҳрон, 1959; Қосим Анвор. Рубоийлар // Донишмандлар туҳфаси. – Т., 2009.*

E.O.

QOSH – yor go‘zalligini namoyon etuvchi asosiy belgilardandir. Ma’shuqa tasvirida Q. alohida o‘rin tutadi. Shu sababdan Q.ning ham adabiyotda timsoliy tushunchalari mavjud. Q. deganda ilohiy va moddiy olam chegarasi ham ko‘zda tutiladi. Tuklari kasratni, ularning jam holati esa vahdatni anglatadi. Payvastaligi – Alloh va olamning yagonaligi, qayrilmaligi – so‘fiy dilidagi nafs va kibrni, uzun va qalinligi – Haq yo‘lining uzun va murakkabligini bildiradi.

Tasavvuf lug‘atlarida Q. shunday izohlanadi: “Solikdagi xatolar sababli darajasining tushishi hamda e’tibordan qolishidir”. S.Uludog‘ ham, “... qosh solik darajasining pasayishi, Zoti kibriyoning yashirinishidir. Bundan tashqari, borliq olamining ziynatlanishi sababiga ham qosh deyiladi” ma’nosida izohlaydi. Umuman, Q. tasavvuf she’riyatida rang-barang talqin qilinadi: 1) moddiy va ilohiy olam o‘rtasidagi chegara; 2) Alloh bilan dunyo o‘rtasidagi masofa; 3) har qanday to‘siq, g‘ov; 4) rang-baranglik; 5) orzu-umid.

Inson, darhaqiqat, ahsani taqvimdir. Uning go‘zal yaratilishida Q.ning ham o‘ziga xos jozibasi bor. Bu hol ijodkorlar nazaridan chetda qolmagan. N. g‘azallarining aksariyatida Q. ko‘z timsoli b-n yonma-yon kelgan:

Yo‘qki, ul ko‘z qoradur husnung aro,
ey qorako‘z,
Kim qoshing dag‘i erur asru qaro, ey qorako‘z.

“F.K.”da quyidagi bayt mavjud:

Zohido, rasvolig‘im ta’n aylading, jahd aylakim,
Bo‘lmag‘aysen ul ko‘z-u, qoshi qarog‘a mubtalo.

Mazkur baytda ko‘z va Q. go‘zalligiga maftunlik, zohirparastlikka ishora qilmoqda. Zohidning maslagi jannat va ko‘zi-yu qoshi qaro hurlar,

ammo chin oshiqlar Haq va haqiqatga talpinadi. N.da fikrlar ayni bo‘lgan o‘rinlar bo‘lsa-da, ifodada har doim yangilik hamda mukammallikka intilgan.

Navoiyning bu namozi ne nav’ ekin, yo Rab,
Ki sajda vaqti ko‘ziga ul egma qosh ko‘runur.

Egma Q. yanayam sehrlovchidir. Shoir shu bois tasvirda qoshning sifatlovchisini hamisha yangilaydi. Q. bilan bog‘liq baytlar orasida uning yangi oyga qiyosi ham e’tiborga loyiq:

Yangi oy botti, nargis itti, barbod o‘ldi
sarv-u gul,
Taololloh, ne qosh-u ko‘z ekin, yo Rab,
ne qadd-u yuz.

Yangi oy – qosh, nargis – ko‘z, sarv – qad, gul esa – yuz, chehra, ko‘rinadiki, laff-u nashr badiiy san’ati va tashbih san’ati birgalikda ishlatilgan. Yangi oy – qosh, nargis – ko‘z aslida istiora san’atining bag‘oyat go‘zal namunasi sifatida ta’sirlidir. Ma’shuqa qoshining, asosan, qosh va ko‘z, shuningdek, yangi oy, goh-gohida yo – yoy – kamon ifoda topgan baytlar e’tiborli. Bilamizki, Q., aksariyat hollarda, mehrobga tashbih qilinadi. Zohidlar masjiddagi mehrobga sajda qilishsa, so‘fiylar mayxonada yorning qayrilma qoshiga yukinishadi. N. qator g‘azallarida Q. va mehrobning shakliy o‘xshashligidan foydalanib, ularni bir-biriga tashbeh etadi. Ayni paytda, o‘zaro zid qo‘yib, Q.ning mehrobdan ustunligiga qayta-qayta urg‘u beradi:

Sajda qilmoq ne tafovut Ka’ba yoxud butqakim,
Qoshi mehrobi, qayon qilsam sujud, o‘trudadur.

Q.ni mehrobdan tashqari hilolga arabcha oy, yangi oy, uch kunlik oy, yangi chiqqan oyga o‘xshatishgan. Uning egikligi Q.ga o‘xshashligi bois aynan shu tashbih mumtoz adabiyotda an’ana tusini olgan. Hilol tashbihi atigi o‘n bir o‘rinda: “G‘.S.” va “B.V.”da birgina, “N.Sh.”da va “F.K.”da to‘rt o‘rinda mavjud:

Ne qosh-u yuzdurur sanga, ey sun’i loyuzol,
Bir oy boshida ko‘rmadi hech kim ikki hilol .

Q.ning qavs (yoy, kamon, kamalak)ga o‘xshatilishi ham mavjud hodisa. Ammo N. g‘azallarida bu xil hodisa atigi to‘rt o‘rinda ekanligi kuzatiladi. Devonlardan “G‘.S.” va “F.K.”ning ikki o‘rnida qavs va Q. timsoli tayin etildi:

Qosh-u yuzungni munajjim chunki ko‘rdi beniqob,
Dedi: ko‘rkim qavs burjidin tug‘uptur oftob.

Ilk baytda “qavs burji” (qavs burji o‘n ikki burjning to‘qqizinchisi) nishonga olinmoqda, ana shu burjdagi oftob (quyosh) yangidan tug‘ilibdi. Bunga javob baytning birinchi misrasida aniq berilgan, aytilishicha, munajjim (yulduzshunos) ma’shuqa “qosh-u yuzi”ni ochiq, niqobsiz ko‘rib, shu xil xulosaga keladi. Ochig‘i ma’shuqa Q.i qavsga, uning yuzi oftobga o‘xshatilib, ayni shu hodisa qavs burjida sodir bo‘lgani uqtirilmoqda.

Qatra sulardur ko‘ngul o‘tig‘a taskin bergali,
Kim ul oy yog‘durdi qoshi qavsidin paykon emas.

Shuningdek, qavs, ya’ni yoy, kamon, kamalak, o‘n ikki burjdan biri ko‘pincha qavsi quzax, o‘q-yoy, yoy-kamalak ma’nosida keladi. Shuningdek, Q. – mushkin (qoralik), mushk rangli, mushk hidli ma’nolarini anglatib, (mujgon) kiprik b-n yonma-yon ifoda etiladi. Q. harfiy san’atda “Nun” ن bilan beriladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Миръоти ушшоқ // Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. – М., 1965; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва таъбироти ирфоний. – Теҳрон (1379 (ҳ.-ш.); Абдуллаев А. Тасаввуф ва унинг намояндалари. – Т., 2009; Абдуқодиров А. Тасаввуф истилоҳларининг қисқача изоҳли луғати. 2-китоб. – Хўжанд, 2002.*

Sh.N.

QUBOD (Kavad 1) (488–531) – Sosoniy hukmdor. No‘shiravoni Odil (Anushervon)ning otasi. 488–496 va 496–531-yy.da taxtda o‘tirgan. Q.ning yoshligi turklar orasida o‘tgan. Chunki uning otasi Feruz binni Yazdijurd eftaliy turklari b-n urushda yengilib, ularga tovon to‘lashga majbur bo‘lgan, lekin tovon pulining zo‘rg‘a yarmini to‘lashga qurbi yetgan va qolgan yarmi evaziga o‘g‘li Q.ni garov sifatida topshirgan. Feruz vafotidan keyin Yalosh (Vologes) shoh bo‘lgan. Lekin u faqat to‘rt yil taxtda o‘tirgan. Undan so‘ng Q. hukmdor bo‘lgan. Buning davrida Mazdak maydonga chiqqan va o‘z ta’limotini tarqata boshlagan. Q. ham bu ta’limotni qabul qilgan. Bundan norozi bo‘lgan a’yonlar uni taxtdan ag‘darganlar (496). Q. eftaliylar xoniga yordam so‘rab borgan, uning qiziga uylangan va xoqonning ko‘magi yordamida ikkinchi marta taxtga o‘tirgan. Ikkinchi shohligi davrida Q. tashqi siyosatni o‘zgartirgan va eftaliy turklari b-n itifoq tuzib, Vizantiyaga qarshi urushgan. Urush 560-y. da Q.ning g‘alabasi b-n tugagan. Shuningdek, Q. ikkinchi shohlik davrida endi mazdakiylarga qarshi siyosat olib borgan va 529-y.da ular qirg‘in qilinib, harakat bostirilgan. Q. 530-y. vafot etgan.

N. “T.M.A.” asarida boshqa shohlar qatorida Q. haqida ham ma’lumot beradi. N. ham uning Feruz binni Yazdijurd o‘g‘li ekanligini, Yaloshdan so‘ng taxtga o‘tirganini qayd etadi. Lekin “T.M.A.”da Yalosh Feruzning o‘g‘li deyilgan. Eron tarixiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda esa Yalosh Feruzning ukasi deb ko‘rsatiladi. N. Q.ning turk xoqoniga garov sifatida topshirilgani haqida hech narsa demaydi. Aftidan, bu fakt unga ma’lum bo‘lmagan. Q.ning dastlab Mazdak ta’limotini qabul qilganni N. ham tasdiqlaydi va aynan shu tufayli u toj-taxtidan ayrilganligini to‘g‘ri qayd qiladi. Q.ning turklardan ko‘mak olib, yana hokimiyatni o‘z qo‘liga olgani ham “T.M.A.”da bayon qilingan. Shuningdek, N. uning Rumga (Vizantiyaga) qarshi urushgani va g‘alaba qilganini ham aytib o‘tadi. Q.ning podshohlik muddatini N. 63 yoki 64 yil deb ko‘rsatadi. Eron tarixiga oid ishlardagi ma’lumotlarga ko‘ra esa, u birinchi marta 488-y.dan 496-y.gacha sakkiz yil, ikkinchi marta 497-y.dan 531-y.gacha 34 yil, jami bo‘lib 42 yil hukmronlik qilgan.

Q. nomi N.ning boshqa asarlarida ham tilga olingan. Jumladan, “S.I.” dostonining 14-bobida N. u haqda shunday yozgan:

Qubod ibni Feruz ham tuzdi bazm,
Bu kox ichra, lekin qo‘yub qildi azm.

N. lirikasida bu nom umumlashma obraz sifatida, hukmdorlik, kuch-qudrat, hashamat ramzi o‘laroq qo‘llanilgan:

Ey Navoiy, g‘am yema, boshingg‘a bo‘lsun mustadom,
Ulki, bordur vorisi taxti Jam-u toji Qubod.

Yoki:

Ne sud, bo‘lsa amal nomasi qora, gar xud
Oting nishon uza Jamshid yo Qubod etting?

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Пигулевская Н.В., Якубовский А.Ю., Петрушевский И.П., Строева Л.В., Беленицкий Л.М. История Ирана с древнейших времен до конца 18 века. Изд., Л., – 1958.*

Q.E.

QUVNOQOV Jonibek (1941–1990, Jizzax) – shoir, tarjimon. Xo‘jand DPI (hozir XDD)ning Tarix-filologiya fakultetini tugatgan (1963).

1961-y.dan she’rlari matbuotda bosila boshlagan. “Qarz” (1973), “Arzi dil” (1977), “Iftixor” (1982), “Rohho” (“Yo‘llar”) (1987), “Zango‘la” (1990), “Yurak to‘lqinlari” (1977) she’riy to‘plamlari chop etilgan.

1990-y.da N.ning “L.M.” dostonini tojik tiliga o‘girgan.

Ad.: *Писатели Узбекистана. – Т., 1984; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 3. – Душанбе, 2004.*

E.O.

QUDRATULLAYEV Hasan Samadovich – (1941, Samarqand – 2018, Toshkent.) – adabiyotshunos, f.f.d-ri (2000), prof. (2004), Bobur xalqaro mukofoti sohibi (2008). Q.H.S. dastlab N. hayoti va ijodiy merosi xususida "Alisher Navoiy: yozuvchi mehnati va mahorati" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan (1983). Q.H.S. mazkur ilmiy ishi asosida "Navoiyning estetik olami" nomli kitob yozgan (1991). Mazkur kitobda u, birinchidan, N.ning adabiy-tanqidiy qarashlari ham badiiy, ham "M.N.", "N.M.", "M.L.", "T.A.H." kabi ilmiy asarlarida o'z ifodasini topganligiga diqqat qaratgan, ikkinchidan, ushbu masala tarixini yoritish maqsadida o'zbek va rus olimlari o'rgangani xususida ham batafsil to'xtalgan, uchinchidan, N.ni birinchi o'zbek adababiyotshunos olimi sifatida yuksak baholagan, to'rtinchidan, badiiy mahorat masalasi N. qarashlarida asosiy o'rin tutsa-da, biroq daho shoirning estetik olami badiiy ijodi kabi cheksiz ekani va ulug' mutafakkirning salohiyat va tafakkur qudratini belgilovchi buyuk xizmatlari yetarli darajada o'rganilmagani ham qayd etilgan. Q.H.S. keyingi ilmiy faoliyatini Xondamir, Zayniddin Vosifiy, Bobur, Mirza Haydar hayoti va ijodi, xususan, "Boburnoma" b-n bog'liq tadqiqotlar tashkil qilsa-da. ularda ham Q.H.S. qiyosiy aspektda N. asarlariga murojaat qilganini ko'rish mumkin.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Қудратуллаев Ҳ. Навоийнинг адабий-эстетик олами. – Т., 1991; Қудратуллаев Ҳ. "Бобурнома" ва "Тарихи Рашидий"да Навоий сиймоси. – Т.: Ўзбекистон адабиёти ва санъати газетаси. 2001. 7-сон.*

B.R.

QULMUHAMMAD UDIY (XV asr oxiri – XVI asr 1-yarmi) – bastakor, sozanda, musiqashunos. Afg'onistonning Shibirg'on viloyatidan. Sozanda va xonandalikda Hirot mumtoz musiqa maktabi an'analarini davom ettirgan va rivojlantirgan. Bu san'atkor Hirot madaniy markazining ham yirik arboblaridan bo'lgan. U g'ijjak chalishda tengsiz bo'lib, bu soz u-n "Foxtazarb", "Barafshon", "Nim saqil" usullarida "Hijoz", "Husayniy", "Zango'la" maqomlari tarkibida ko'plab kuylar ijod qilgan. Xususan, ud asbobini yaxshi chalgani u-n Ustoz Q.U. nomi b-n dong taratgan. Boburning yozishicha, "G'ijjakni ham xo'b cholur edi. G'ijjakka uch xil qil taqti. Ahli nag'madin va ahli sozdin hech kim muncha ko'p va xo'b peshrav bog'lag'on emastur. Peshravdin o'zga ishlarda muncha emastur".

Vosifiyning yozishicha, Majduddin Muhammad N. sharafiga ziyofat uyushtirganda, Ustod Q.U. ham qatnashgan. N. "Xam.m."da Ustod Q.U.ni kichikligida musiqiy bilimlarni puxta egallashi u-n Bu Alishoh degan davr allomasiga tavsiya qilganligini qayd etadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Хамсат ул-мутаҳаййирин. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 2002; Мирзо Ҳайдар. – Т., 2010; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 3. – Душанбе, 2004.*

E.O.

QULON – otsimonlar oilasiga mansub toq tuyoqli yovvoyi hayvon, yovvoyi eshak, tojiklar uni "go'r" deb ataydilar. N., asosan, "X."da Q.ga tez-tez murojaat etadi. M-n, "F.Sh." dostonida Farhod Salosil qo'rg'onida asir ekan, qo'l-oyoqlaridagi zanjirlardan osongina xalos bo'lib,

ozodlikka chiqar, atrofni kezib, tog‘-toshlardagi hayvonlar b-n “suhbat” qurarkan, Q.larni bo‘yinidan quchib, xayolan “yor” hasratidan yengillashmoqchi bo‘lardi:

Qo‘lin aylab qulonlar bo‘yni bandi,
Yetib erkin debon ul oy kamandi.

Q. vahshiy bo‘lsa-da, Farhodga bo‘ysunishi, bu bevosita Farhodning vahshiy hayvonlarni tasarruf etish quvvatiga ega ekanligini ham bildiradi. Bunday holat Farhodga xos bo‘lgan komillik belgilaridan biridir. Tasavvuf adabiyotidan bilamizki, avliyolar b-n bog‘liq bunday hodisalar ko‘p kuzatilgan.

Ayni shunga o‘xshash manzara N.ning “L.M.” dostonida ham kuzatiladi. Hijron azoblarida qolgan Majnun Laylining uyidagi it b-n suhbat qurib, uning jarohatlariga malham qo‘yadi. Avvallari ham sahroga chiqib ketib, turli-tuman vahshiy jonzotlar b-n “dardlashgan” Majnunning o‘sha on sahrodagi kiyiklar yodiga tushadi va ular sari yo‘l oladi:

O‘dig‘a chu kirdi vahshiyi dasht,
Qilmoq kiyik-u qulon bila gasht.

N. ba’zan Q. so‘zini “kiyik” lafzi b-n yonmayon tilga oladi:

Kiyik erkin yururda rahnamoying,
Qulon erkin samandi bodpoying?

Q. kalimasining badiiy ifodasi “S.S.” dostonida betakror adabiy shaklda namoyon bo‘lgan. Shoir mahbubasidan ayri qolib, hijronda qonli yoshlar to‘kayotgan oshiqning ruhiy holatini tasvirlar ekan, sog‘inchdan nihoyatda o‘rtangan shoh Bahrom Diloromning jayron ko‘zlarini xayol etganida, ko‘ngil dashtida go‘yo yuzlab Q.lar yugurgandek bo‘ladi:

Ko‘zining jayranin nazarda ko‘rub,
Ko‘ngli dashtida yuz qulon yugurub.

Aslida, “S.S.” dostoni bosh qahramonining ismiga qo‘shib aytiluvchi sifatlash “Go‘r” – “qulon”, “yovvoyi eshak” mazmunlarini anglatib, dostonda Q. timsoli hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bu so‘z Bahrom ismi b-n birga ishlatilishining sababi shundaki, shoh shu hayvon – Q. ovini juda sevgan. “Go‘r” Bahromning laqabiga aylangan. N.ning o‘zi “T.M-.A.” asarida quyidagilarni bayon etadi: “Ani Bahrom Go‘r dedilar. Muning jihatin ba’zi dedilarkim, go‘rni shersayd qilg‘anda, aning o‘qi ikisidin o‘tub, yerga tegdi. Ba’zi debturlarkim, go‘r ovig‘a ko‘p moyil erdi”. Bundan ma’lum bo‘ladiki, doston bosh qahramonining prototipi Eron shohlarining 4-tabaqasi – sosoniy podshohlardan Bahrom binni Yazdijirddir. N. “S.I.” dostonining 54-bobida yana Bahrom Go‘rni eslab, u b-n aloqador hikoyat keltiradi. Unga ko‘ra, ovga otlangan Bahrom Q.ni quvlab ketarkan, sipohidan ajralib qoladi:

Erur naqlkim, shoh Bahromi Go‘r,
Magar sayd uchun surdi bir kun sutur.

Ul ov ichra tushti sipahdin yiroq,
Ani bir qulon soldi eldin qiroq.

Yoki mazkur dostonda Doroning chavgon va to‘p yuborganidan g‘oyat g‘azablangan Iskandarning jangga otlangandagi shiddatini o‘ljasi (qulon) ortidan na’ra tortib, yugurgan sherga o‘xshatadi.

Qilib xaylin a’dog‘a andoq daler
Ki, bo‘lg‘ay qulon qasdida narra sher.

N. har bir so‘zni o‘rnida va barcha nozik ma’nolari b-n qo‘llashda cheksiz poetik mahorat ko‘rsatgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Навоий асарлари луғати. Тузувчилар: П.Шамсиев, С.Иброҳимова. – Т., 1972.*

S.R.

QUR’ON VA NAVOIY – Qur’on (ar. o‘qimoq, qiroat qilmoq) oxirzamon payg‘ambari Muhammad (s.a.v.)ga yigirma uch yil davomida insonlarning holatlariga qarab turli paytda, turli sharoitda farishta Jabroil (a.s.) vositasida tushirilgan.

Islom tarixiga oid manbalarda keltirilishicha, Qur’on nozil bo‘lishi mil. 610-y. boshlangan. Bu jarayon Makkada 13 yil, Madinada 10 yil, hammasi bo‘lib, 23 yil davom etgan. Qur’on vahiy orqali Muhammad (s.a.v.)ga 610–632-yy. davomida nozil qilingan Allohning kalomi (Kalomulloh)dir. Islom olamida Qur’on “mus’haf” deb ham atalgan. Ulamolar Qur’onning 30 xil nom va sifatlarini sanab o‘tganlar. Jumladan, “Kitob” (yozuv), “Furqon” (haq bilan botilning orasini ayiruvchi), “Zikr” (eslatma), “Tanzil” (nozil qilingan) kabi nomlar bilan atalib, “Nur” (yorug‘lik), “Hudo” (hidoyat), “Muborak” (barakotli), “Mubin” (ochiq-ravshan), “Bushro” (xushxabar), “Aziz” (e’zozlanuvchi), “Majid” (ulug‘), “Bashir” (bashorat beruvchi), “Nazir” (ogohlantiruvchi) kabi so‘zlar b-n sifatlangan. Muhammad (s.a.v.) Qur’on oyatlarini Jabroil farishtadan qabul qilar, boshqa musulmonlar u kishidan eshitib, yodlab olardilar. Yozishni biladigan odamlar tomonidan xurmoning po‘stlog‘i, yapaloq tosh, katta suyak, teri va shunga o‘xshash narsalarga Qur’onni yozib borganlar. Keyinchalik bu ilohiy kitob islom ummatining xalifalari Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali va sahobalardan Zayd ibn Sobit, Ubay ibn Ka’b kabilar tomonidan yaxlit kitob holiga keltirilgan. Bugungi kunga qadar bu muqaddas kitob musulmonlar hayotida, ularning diniy-e’tiqodiy, hayot tarzida o‘ziga xos dasturul amal bo‘lib kelmoqda.

Qur’on musulmon Sharq adabiyotining rivojiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Ijod ahli biror diniy masala, tasavvufiy maslak, odamlar o‘rtasidagi muomala madaniyati kabilarni qalamga olganda, Qur’on oyatlari yoki oyat mazmunini iqtibos sifatida keltirib, o‘z g‘oyasini tahlil va tashviq qilishgan. M-n, Ahmad Yassaviy “Devoni hikmat”ini munojot b-n yakunlar ekan, hikmatlarining “Ma’noyi Qur’on”dan iborat ekanligini alohida ta’kidlaydi:

Mani hikmatlarim olamda doston,
O‘qib, uqsang hama ma’noyi Qur’on...

N. ijodini ham Qur’on ta’sirisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. N. o‘z asarlarida mavzuga tegishli bo‘lgan Qur’on oyatlarini to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki bir parchasini iqtibos qilib keltiradi. Qur’on da nomlari qayd etilgan Nuh, Dovud, Sulaymon, Yusuf, Muso, Iso (a.s) kabi payg‘ambarlar N. she’riyatida talmehni hosil qiladi. Rasulullоh (s.a.v) muborak bir hadislarida shunday deganlar: “Sizlarning ichingizda eng yaxshingiz Qur’onni o‘rgangan va Qur’onni o‘rgatgan kishidir”. Shu bois ham Musulmon olamida olim yo shoir bo‘lsin Qur’onni yaxshi o‘qib-o‘zlashtirib, asarlari orqali targ‘ib va tashviq qilib kelgan. Ammo bu borada ularning hech biri N.chalik muvaffaqiyatga erishgan emas. N. hatto bir o‘rinda islom aqidasidan kelib chiqib, aytadiki, kishi butun Qur’on oyatlarini e’tirof qilib, birgina oyatini inkor etsa ham, musulmon bo‘lolmaydi. Deylik, Zamaxshariyning “Kashshof” tafsirini sharhlasa-yu, birgina oyatga amal qilmasa ham, uning bu mashaqqati behuda ketadi:

Amal bir oyat ila aylamas, chu yo‘q taqdir,
Biravki aylasa “Kashshof”da o‘zin shorih.

Qur’onning bir qator oyatlarida uning rahmat va shifo ekani ta’kidlangan. Bu haqda, jumladan, “Al-Isro” surasi, 82-oyatda shunday deyiladi: ”Biz mo‘minlar uchun shifo va rahmat bo‘lgan Qur’on oyatlarini nozil qilurmiz.”. “Fussilat”

surasi 44-oyatda aytiladi: “Aytgin: “(Ushbu Qur’on) iymon keltirgan zotlar uchun hidoyat va shifodir”. Shuningdek: “Tavba” surasi, 14-oyat; “Yunus” surasi, 57-oyat; “Shuaro” surasi, 80-oyatlarda ham bunga ishora qilingan.

N. yuqoridagi oyatlar ta’sirida Qur’onni Tangri kalomi va ko‘ngullar shifosi, deya ulug‘lab, “Nazm ul-javohir”da hazrat Alining hikmatli so‘zlarini mana bunday tarjima qiladi:

Qur’onki erur mujdayi joni o‘qumoq,
Yo‘q, yo‘qki, hayoti jovidoni o‘qumoq,

Bil ko‘nglunga istasang shifoni o‘qumoq,
Kim keldi ko‘ngul shifosi oni o‘qumoq...

Olam eli ichra gar gado, gar shoh erur,
Ne dardki, ul ko‘ngli aro hamroh erur,

Qur’onni tilovat etsun ar ogoh erur,
El ko‘ngliga chun davo Kalomulloh erur.

N.ning eng ko‘p oyatlar iqtibos keltirilgan asari “T.A.H.”dir. U mazkur asarini yozar ekan, har bir payg‘ambar tarixini, uning hayotidagi muhim nuqtalarni yoritish uchun Qur’onning turli suralaridan 70 ga yaqin oyatlarni to‘lig‘icha yoki qisman dalil sifatida keltiradi. M-n: dastlabki odam va Payg‘ambar Odam Ato haqidagi qissada 5 o‘rinda, Yusuf qissasida esa 6 o‘rinda oyatlar mavjud. N.ning yozishicha, Alloh taolo Odam (a.s)ni yaratib, uning tufrog‘ig‘a qirq kun rahmat yomg‘urini “yog‘durub, o‘z qudrat ilki (qo‘li) bilan qorgandan keyin, unga inson “kisvati” (kiyim, ust-boshini) kiydiradilar va “Haq subhonahu va taolo” unga “asmoyi husnoni”ni o‘rgatganini shunday bayon qiladi: “Va allama odamal asmoa kullaho”. (Va U zot Odamga barcha narsalarning ismlarini o‘rgatdi...) (“Baqara” surasi, 31-oyat). Va muqarrab farishtalar bu hodisadan xabar topib, “Tangri taolo hukmi bila anga sajda qildilar. Iblisdin o‘zgakim, ul jindin erdi”. N. keyingi voqealarni Qur’on oyatlari orqali shunday ifodalaydi: “Fasajadal maloikat-u kulluhum ajmaun. Illo Iblisa...” (Barcha-barcha farishtalar unga (ya’ni, Odamga) sajda qildilar. Magar iblis sajda qiluvchilar bilan birga bo‘lishdan bosh tortdi) (“Hijr” surasi, 30-31-oyatlar).

Va iblis ko‘p toat qilgani sababli farishta darajasiga yetgan edi. Allohning amridan bosh tortgani uchun bo‘yniga abadiy tavqi la’nat tushadi. Shu voqealar bayon etilib, quyidagi oyatni keltiriladi:” “Va inna alaykal-la’nata ilo yavmiddin” (“Va, albatta, to jazo (qiyomat) kunigacha senga (barchaning) la’nati bo‘lur” (“Hijr” surasi, 35-oyat). Odam va Havo bihishtda sokin bo‘lsun deb Allohdan shunday amr bo‘ladi: “Yo Odamuskun anta va zavjuka al-jannata” (Ey odam, sen esa jufting (Havvo) bilan jannatni maskan tut...) (“Baqara” surasi, 35-oyat). Shoir ayrim o‘rinlarda voqealarni bir-biriga oyatlar orqali bog‘lab bayon qiladi. Bir oyat keyingi oyatning ma’nosi to‘ldirib, izchillikni ta’minlab keladi. N. Yunus (a.s.) qissasini Qur’on xabarlari orqali yoritar ekan, uni balig‘ yutib, “qursog‘ida” asragani va Yunus (a.s.) qirq kun bolig‘ ichida turib, “Lo iloha illo anta subhonaka inni kuntu minazzolimin”, “...Hech iloh yo‘q, magar o‘zing bordirsan, ey pok Parvardigor, darhaqiqat, men (o‘z jonimga) jabr qiluvchilardan bo‘lib qoldim...” (“Anbiyo” surasi, 87-oyat). “tasbehni vird” qilganini ta’kidlab o‘tadi. Xullas, Idris (a.s.), Nuh (a.s.), Solih (a.s.), Ibrohim (a.s.), Ismoil (a.s.), Yusuf (a.s.), Muso (a.s.) va boshqa payg‘ambarlar qissasiga to‘xtalgan N. Qur’ondan oyatlar keltiradi va kitobxonga voqealar rivoji haqida aniq tasavvur paydo qiladi.

“X.” dostonlarining an’anaviy kirish qismlarida ham Qur’ondan juda ko‘p oyatlar keltirilgan. Ayniqsa, “H.A.” dostoni ajralib turadi.

“H.A.”da yetuk axloqqa erishish va e’tiqodni shakllantirish, shariatga amal qilish, xalqqa, jamiyatga foyda yetkazish, haqiqiy mo‘min-musulmon, komil insonni tarbiyalashga da’vat etilgani ma’lum. Unda N. o‘zining bosh maqsadini o‘quvchiga yetkazish, fikrini dalillash, g‘oyaviy ta’sirchanlikka erishish uchun Qur’on oyatlaridan uch yo‘nalishda istifoda etgan. Ya’ni:

1. Sarlavhaga chiqarilgan oyatlar (baroati istihlol).

2. Oyat va oyatdan olingan iboralar (iqtibos).

3. Oyatga ishoralar (aqd).

“H.A.”ning 6 ta: XI, XVIII, XIX, XX, XXVI boblarida baroati istihlol san’ati vositasida oyatlar sarlavhaga chiqarilgan. Boshqa boblardagi 17 baytda oyatlardan iboralar ham uchraydi. Ularda iqtibos san’ati qo‘llangan. Ko‘plab baytlarda aqd san’ati vositasida ham oyatlarga ishoralar qilingan.

Islom aqida olimlarining yozishicha, Qur’on va hadislarda Allohning ism va sifatlari 99 ta nom bilan kelgan. Shu nomlarga birorta qo‘shish yoki birortasini inkor etish joiz emas. N. ham “H.A.”da Allohning zot va sifatlari Qur’onda qanday keltirilgan bo‘lsa, shunday ulug‘laydi. Allohning har bir sifatini teran tafakkur va samimiy tuyg‘ular b-n sharhlaydi, yuksak ma’no va chuqur badiiyat b-n sug‘orilgan baytlar yaratadi.

M-n, “Hadid” surasi, 3-oyatida: “Avval ham, oxir ham, zohir ham, botin ham Uning o‘zidir. U barcha narsani bilguchidir”, deyiladi. N. dastlabki munojotda Allohni quyidagicha sifatlaydi:

Ne bo‘lub avvalda bidoyat sanga,
Ne kelib oxirda nihoyat sanga.

Avval o‘zung, oxir-u mobayn o‘zung,
Borchag‘a Xoliq, borig‘a ayn o‘zung.

Ulug‘ shoir Allohning dunyoni yaratish jarayonini tasvirlar ekan, dunyo yaratilmasdan burun nozir ham, manzur ham, husniga mag‘rur ham uning O‘zi ekanligini, O‘zini tanitish, qudratini namoyish qilish, husnini jilva qildirish u-n bu jumla olamni ko‘zgu sifatida yaratganini aytadi:

Jilvayi husn o‘lg‘ali zohir anga,
Bo‘ldi bu mir’ot mazohir anga.

“Baqara” surasi, 115-oyatida: “Mashriq ham, Mag‘rib ham Allohnikidir. Bas, qay tarafga yuz bursangiz, o‘sha joy Allohnikidir. Shubhasiz, Alloh (hamma tomonni) qamrab oluvchi bilimdondir” deyiladi. Demak, koinotning qaysi burchagida bo‘lmasin, Alloh yaratgan narsalar ko‘zgu kabi uning mavjudligini namoyon qiladi. Lekin borliq yaralmasdan burun faqat Alloh mavjud edi. Uning Qur’onda keltirilgan Ahad-yakka, yagonalik sifati bor edi. Va U abadiy yakka-yu yagonaligicha boqiydir:

Birlik edi-yu adade yo‘q edi,
Birdin o‘zga ahade yo‘q edi.

“Hadid” surasi, 2-oyatida aytiladi: “Osmonlar va Yer Uning mulkidir. U hayot va o‘lim berur. U barcha narsaga qodirdir”. N. yozadiki, yo‘qlik olamidan zarradan ulkan sayyoralarga qadar barcha maxluqot Uning irodasi bilan yaralgan. Ularning harakati va yo‘q bo‘lib ketishi ham Allohdandir:

Sendin alar junbish-u oromi ham,
O‘ylaki, ijodi ham, e’domi ham.

Alloh irodasi bilan yaralgan barcha narsa Unga sajda qiladi va bo‘ysunadi. Jumladan, “Ra’d” surasi, 15-oyatida aytiladi: “Osmonlar va yerdagi barcha jonzot va ularning soyalari xoh istasinlar, xoh istamasinlar, erta-yu kech faqat Allohgagina sajda qiladilar – bo‘yin so‘nadilar”. Bu oyat mazmuni N.da shunday ifodalangan:

Katmi adamdin neki mavjud o‘lub,
Sojid o‘lub, sen anga masjud o‘lub.

Bordan yo‘q, yo‘qdan bor qiluvchi Zot yetti osmon, quyosh, yulduzlarni yaratib, ularga nur, yorug‘lik bag‘ishlagan. “Ustlaringizda yetti (qabat) pishiq mustahkam (osmonni) bino qildik. Va doimo charaqlab turuvchi chiroqni (ya’ni quyoshni) paydo qildik” deyiladi “Naba’” surasi, 12-oyatida. Ulug‘ shoirning quyidagi baytlarida yuqoridagi oyatning ta’sirini ko‘ramiz:

Xoliqi ashyoki, jahon ayladi,
Charxni paydovu nihon ayladi.

Yetti falakni qilib mustadir,
Har biri bir sham' ila bo'ldi munir.

N. Alloh yaratgan har bir narsaning hikmati va xosiyati borligini, osmon jismlari, yerdagi o'simliklar va hayvonot dunyosi hamda ma'danlarning har biri "bir gavhari oliy sifot", ekanini ta'kidlab, maxluqot-u mavjudotni, jumla olamni yaratishdan maqsad inson ekanini alohida urg'ulaydi:

Ganjing aro naqd farovon edi,
Lek boridin g'araz inson edi.

Qur'onda aytilganidek, Alloh insonni loy – tuproqdan yaratgan va unga ruh bag'ishlagan. Hikmat qo'li b-n Eram bog'idek tuprog'ini go'zal qilib qorgan. Uning shakl-u shamoyilini chiroyli qilib yasagan:

Odami xokiyni chu subhi alast
Ayladilar ruh mayi birla mast.

Hikmat iligi bila tufrog'ini,
Tuzdilar andoqki Eram bog'ini.

N.ning ta'kidlashicha, modomiki, odam Xudoning yerdagi xalifasi, xos sirning mahrami, sevikli, mukarram bandasi, "ashraf ul-maxluqot" – yaratilgan narsalarning eng ulug'i ekan, u Xudoning mehr-u muhabbatiga sazovor alohida xilqatdir:

"Karramno" keldi manoqib anga,
"Ahsani taqvim" munosib anga.

Bayt tarkibida kelgan "karramno" (mukarram qildik) "Isro'" surasining 70-oyatidan olingan so'z bo'lib, oyatning to'liq tarjimasi shunday: "Darhaqiqat, Biz Odam bolalarini aziz – mukarram qildik va ularni bar-ru bahrda – quruqlik va dengizda (ot, ulov va kemalarga) chiqarib qo'ydik hamda ularga halol – pok narsalardan rizq-u ro'z berdik va ularni O'zimiz yaratgan juda ko'p jonzotlardan afzal, ustun qilib qo'ydik".

"Ahsani taqvim" esa "Vat-tiyn" surasidagi "Laqad xalaqnal insona fi ahsani taqvim", ya'ni, darhaqiqat, biz insonni eng go'zal shakl-u shamoyilda yaratdik, degan 7-oyatidan olingan iboradir.

Yuksak taxayyul sohibi N. Alloh yaratgan butun borliq, behad sir-sanoatga boy koinot, har bir hikmatli ashyolar qarshisida hayratga tushadi. Alloh yaratgan narsalar mohiyatini anglashda buyuk aql ham ojizligini e'tirof etadi. Shoir Allohning Qur'onda kelgan "qodir" va "qahhor" sifatlarini tilga oladi. Allohga qarata: agar koinot, dunyodagi narsalarni yo'qotmoqchi bo'lsang, lahzada ulardan nom-u nishon qolmaydi, deb qiyomat manzaralarini chizadi. Ana shu kuni tog'lar jun kabi to'zib, falaklar o'z o'rnidan qo'zg'aladi, daryolar ko'kka sapchiydi, "ko'k bir etak gul kabi sovrilib", yulduzlar "bir hovuch gul kabi qo'zg'alib", kun qizigandan qizib ketadi. Yer yuzini dahshat qoplab, hamma o'ladi, faqat Allohgina boqiy qoladi:

Tengri qolib boqiy-u dayyor yo'q,
Yor muabbad bo'lub ag'yor yo'q.

Qur'onda qiyomat kunining haqligi, uning sodir bo'lishi, biroq shu kunning vaqti-soatini hech kim bilmasligi takror uqtiriladi. Qiyomat kuniga ishonmaydigan kishilar har xil azoblar b-n qo'rqitiladi. "Albatta (qiyomat) soati kelguvchidir. U haqda shak-shubha yo'qdir. Lekin ko'p odamlar (uning) kelishiga iymon keltirmaslar" ("Mo'min" surasi, 59-oyat).

Mahshar kunida faqat Alloh hukm yuritadi. Barcha kishilar uning amriga muntazir, qo'rquvdan titrab turadilar. Yer, osmondagi narsa, mol-u mulk faqat Yaratuvchining ixtiyorida bo'ladi:

So'z "limanil-mulk" o'lub ul dam anga,
Kim angadur mulk musallam anga.

N. yuqoridagi baytda "limanil-mulk ul-yavm. Lillohil vohidil qahhor" oyatiga ishora qilish orqali qiyomat kuni zo'r-u ojiz, boy-u kambag'al, mo'min-u kofir, xullas, inson zoti

“mulk”ning haqiqiy egasini e’tirof etib, inon-ixtiyorini unga topshirishini ta’kidlaydi. Oyatning tarjimasiga diqqat qilinsa, fikrimiz yanada yorqinlashadi: “Ular (bandalar) tashqari chiqsalar (qabrlaridan) o‘sha kun (ya’ni qiyomatda) insonlarning birorta ishlari ham Alloh taolodan maxfiy qolmaydi (ya’ni, Alloh taolo bandalarining barcha qilgan ishlarini biladi va hisob-kitob qiladi). Ana shu kun Alloh: “Bu kunning mulki (podshohligi, hisob-kitobi, boshqarishligi) kimga tegishli?”, – deb xitob qiladi. Bandalar bir ovozdan: “Bu kunning mulki yagona va qahrli Allohgagina tegishlidir”, – deb javob beradilar” (Mo‘min surasi, 40-oyat).

N. qiyomat voqealariga to‘xtalar ekan, u bilan bog‘liq oyatlarni baytlar qatiga singdiradi va qiyomat qoyim manzaralarini ko‘z oldimizda jonli gavdalantiradi:

Zohir o‘lur “bu’sira mo fil-qubur”,
Jilva qilur “hussila mo fis-sudur”.

“Yavmaizin mo xalaqallohu fih”,
“Yavma yafirrul-mar’u min axih”.

Ne kun o‘shul oh-u nadomat kuni,
Oh-u nadomat ne, qiyomat kuni.

Dastlabki baytning oyatlari “Val-odiyot” surasidan bo‘lib, uning mazmuni shunday: “Axir u bilmasmiki, (qiyomat qoyim bo‘lib), qabrlarning ichidagi narsalar (jasadlarga jon ato etilib, tashqariga chiqarilganida. Va dillaridagi sirlar oshkor qilinganida. Ana o‘sha kunda shak-shubhasiz Parvardigorlari ulardan (ya’ni, barcha xaloyiqning hayoti dunyoda qilib o‘tgan ishlaridan) ogoh – xabardor-ku!”

“Yavma yafirr ul-mar’u min axih” “Abasa” surasining 34-oyatidir. Bu oyat qiyomat kuni dahshatli qichqiriq, ya’ni ikkinchi sur chalinib, barcha xaloyiqqa qaytadan jon ato etilganda, har kim o‘zi bilan o‘zi ovora bo‘lishidan darak beradi. Oyat ma’nosiga diqqat qilaylik: “U kunda kishi og‘a-inisidan ham, onasi va otasidan ham, xotini-yu, bola-chaqasidan ham qochur?”. N. mazkur oyatning mazmunini boshqa bir baytda ham ifodalaydi:

Qizg‘a ano boqmay, o‘g‘ulg‘a ato,
Borchasining og‘zida “Vohasrato”!

N. Muhammad (s.a.v.)ga bag‘ishlangan na’tlarida payg‘ambarlar va avliyolar sarvari, Xudoning suyukli bandasi (Habibulloh) haqida batafsil to‘xtaladi. U kishining hayot va faoliyatlari, islomga da’vatlari, payg‘ambarliklari b-n bog‘liq Qur’ondagi oyatlarni izohlaydi. Qur’ondek muqaddas kitobning u kishiga nozil qilinganini eng buyuk mo‘jiza deb ta’riflaydi:

Buki Kalomulloh angadur nasib,
Kim yo‘q anga mo‘jiza andin g‘arib.

Ma’lumki, har bir payg‘ambar payg‘ambarligini isbotlash uchun aqlni lol qoldiradigan, odatdan tashqari, g‘ayritabiiy bo‘lgan ishlar-mo‘jizalar ko‘rsatgan:

Borchasi Haq amrila nahyin tuzub,
Elga bori Haq yo‘lini ko‘rguzub.

Hujjat agar istasa har tiyra zot,
Har birisi ko‘rguzubon mo‘jizot.

N. “H.A.”da umuman, “X.”dagi na’tlarda Rasulullo (s.a.v.)ning mushriklarga ko‘rsatgan mashhur bir mo‘jizasini yodga oladi:

Mehr mutiyi amr-u misoli bila,
Shaqq bo‘lubon badr hiloli bila.

Bo‘lmadi gar xoma boshin yormog‘ing,
Yordi qamar xomasini bormog‘ing...

Dema ilik, tig‘eki bir bormog‘i,
Oyni iki bo‘ldi ishorat chog‘i.

“F.Sh.” dostonida ham oyni ikki bo‘lish voqeasiga ishora qilingan:

Emas tirnog‘i uzra xoma gar shaqq,
Bo‘lub barmog‘i no‘gidin qamar shaqq.

Ilik tig‘inki tortib fil – ishora,
Qamar qolqonin aylab ikki pora.

Talmeh san’ati vositasida ifodalangan mazkur mo‘jiza Qur’onning “Qamar” surasida shunday keltiriladi: “(Qiyomat) soati yaqinlashib qoldi va oy ham bo‘lindi. Agar ular (quraysh kofirlari Muhammad (s.a.v.)ning haq payg‘ambar ekanliklariga dalolat qiladigan (biron oyat-mo‘jiza ko‘rsalar ham payg‘ambarga iymon keltirish o‘rniga)undan yuz o‘gururlar va (Bu) har doimgi sehr-ku” derlar”.

Me’roj voqeasi N. ijodida alohida o‘rin tutadi. Shoir beshinchi na’tni me’rojga bag‘ishlar ekan, sarlavhada me’roj voqeasini tasdiqlovchi “Al-Isro’” surasining birinchi oyatini dadil qilib keltiradi. N. qisqa muddatda payg‘ambar (s.a.v.) ning me’rojga borib kelishi, buyuk bir “mo‘jiza”dan bahramand bo‘lgani, me’roj voqeasining tub mohiyati haqida so‘zlab, badiiy-tasviriy vositalar orqali fikrini o‘ta ta’sirchan ifodalaydi. Jumladan, “F.Sh.” dostonida o‘qiymiz:

Supurgach “Mo tag‘o” tufrog‘in ul bog‘,
Chekildi nargisiga kuhli “Mo zoh“.

Anga bu surma bo‘lg‘och qurrat ul-ayn,
Nasib o‘ldi maqomi “qoba qavsayn”.

“Mozog‘” so‘zi bilan bog‘liq oyatning to‘liq shakli shunday: “Mozog‘al basar-u va mo tag‘o Laqad rao min oyoti rabbihil kubro”, ya’ni: “(Payg‘ambarning) ko‘zi (o‘ng-u so‘lga) og‘gani ham yo‘q, o‘z haddidan oshgani ham yo‘q. Darhaqiqat u (o‘sha soatda) Parvardigorning buyuk oyatlarini (ya’ni u zotning qudrati ilohiyyaga dalolat qiladigan juda ko‘p alomatlarni) ko‘rdi”.

“Qoba qavsayn” iborasi ham “Van-najm” surasidagi 9-oyatda uchraydi. 8-9-oyatlarning ma’nosi: “So‘ngra yaqinlashib pastladi. Bas, Muhammad (s.a.v)ga ikki kamon oralig‘ida yo (undan-da) yaqinroq bo‘lib”.

Tafsirlarda “Qoba qavsayn” iborasi turlicha talqin qilinadi. Jumladan, N.ning homiyligida yozilgan Husayn Voiz Koshifiyning “Tafsiri Husayniy” asarida yuqoridagi iboralar b-n bog‘liq oyatlar shunday sharhlangan: “Me’roj kechasi Muhammad (s.a.v.) unga hamroh bo‘lgan va unga vahiy yetkazadigan Jabroil farishtani asl qiyofasida ko‘rdi. Uni boshqa kishi asl qiyofada ko‘rgan emas. Muhammad (s.a.v.) Jabroil (a.s) ni dastlab ikki marta ko‘rib, behush bo‘ldi. Hushiga kelgach, ko‘rdiki, Jabroil bir qo‘lini uning ko‘kragiga va bir qo‘lini uning yelkasiga qo‘yib turibdi. Xudoyi taolo bu voqeadan xabar beradiki: “Summa dano” – Jabroil Muhammad (s.a.v) ni behush ko‘rib unga yaqinlashdi. “Fatadallo” – keyin unga so‘zlash uchun boshini engashtirdi, “Fakona” – Jabroil va Muhammad (s.a.v) orasidagi masofa “Qoba qavsayni” – ikki kamon miqdoricha “av adno” – yo undan ham ozroq (edi). Ba’zilar mazkur oyat Muhammad (s.a.v) ning muqaddas qurb manzilida Allohga yaqin bo‘lganligiga ishora deydilar.

N. ko‘ngul, ya’ni yurakning hayrati haqida “H.A.”ning birinchi, ikkinchi va uchinchi hayratlarida keng to‘xtaladi. Har bir sarlavhada matn b-n bog‘liq bo‘lgan bir oyatni qo‘llaydi. M-n, shoir ko‘ngul farishtalar olamidan badan mulkiga tushsa, u yerdagi har bir a’zo Xudoning “Fazkuruni azkurkum va shukur-u li valo takfurun”, ya’ni, – Bas, mani eslangiz, Men ham sizlarni eslayman va menga shukr qiling va Meni inkor qilmangiz” nidosi ostida Haq zikriga mashg‘ul bo‘lganliklarini ko‘radi va “Haqdan baqoyi komiliy” bo‘lib ko‘ngul “ul mulkda xilofat taxtig‘a qaror” tutadi.

Har bir mo‘min kishi Qur’on ko‘rsatmalariga binoan Allohning yagonaligiga, farishtalarga, ilohiy kitoblarga, payg‘ambarlarga, qiyomat kuniga, har qanday yaxshilik va yomonlikning Al-

lohdan ekaniga ishonishi, iymon keltirishi kerak. Ulug‘ mutafakkir shoirga ko‘ra, yuqoridagi olti narsaga ishongan kishi o‘ziga olti (o‘ng, chap, old, orqa, quyi va yuqori) tomondan qo‘rg‘on quradi va agar shu qo‘rg‘oni uni shayton sharridan xavfsiz, omon saqlasa, oqibat “maqsadi asliga xirom qilib”, “qurb harimini maqom” aylaydi:

Olti durur shar’da bilgil adad,
Har neki mo‘ming‘a kerak mu’taqad.

Aylasa bu olti ila ixtisor,
Olti jihatdin anga bo‘lg‘ay hisor.

Kim bu hisor o‘lsa aning ma’mani,
O‘g‘ridin emin bo‘lubon maxzani.

Kalomullohda odamlar mo‘min va kofirga ajratiladi. Mo‘minlar yaxshi amallari sharofatidan jannatga tushishlari, kofirlar shirk va yomon qiliqlari b-n do‘zaxga mahkum bo‘lishlari ta’kidlanadi. Jumladan, “Hashr” surasi, 20-oyatda aytiladi: “Do‘zax egalari bilan jannat egalari barobar bo‘lmas. Jannat egalari (baxt-saodatga)erishguvchi zotlardir”. “Bas, iymon keltirgan va yaxshi amallar qilgan zotlarga kelsak, ularni Parvardigor o‘z rahmatiga doxil qilur. Bu ochiq baxtning o‘zidir. Endi kofir bo‘lgan kimsalarga kelsak, (bas ularga aytilur): “Axir sizlarga Mening oyatlarim tilovat qilingan emasmidi?! Bas sizlar (u oyatlarga iymon keltirmasdan) kibr-u havo qildinglar va jinoyatchi qavm bo‘ldinglar!” (“Josiya” surasi, 30-31-oyat). N. ham yuqoridagi oyatlarga ishora qilib, “olam xalqi”ni “ahli najot” (mo‘minlarga) va “ahli halok” (kofirlarga) ajratgan:

Olam aro xalqni Yazdoni pok,
Ahli najot etti-yu ahli halok.

Bu birisin obidi asnom bil,
Ul birisin zumrayi islom bil.

Kufr eli yo‘l topti malomat sori,
Zumrayi islom salomat sori.

Ul biriga vayl evi bo‘ldi maqom,
Zumrayi islomg‘a dorus-salom.

Ma’lumki, islomning besh sharti bo‘lib, ular haqida Qur’onda aytilgan. N. bu haqda quyidagicha yozadi:

Besh yasamish Tengri taborak ani,
Desa bo‘lur xamsi muborak ani.

Shoir islomning besh sharti bo‘lgan iymon keltirish, namoz, ro‘za, zakot va haj masalalarining shart va vazifalarini uqtirib o‘tadi. Shuningdek, u islomning besh buyuk farzi haqida “S.Z.” qasidalarida, “V.”, “S.M.”, “N.M.” va boshqa asarlarida ham to‘xtalgan. N. “H.A.”da islomiy aqida va ahkomlarga munosabat bildirish b-n birga islomiy axloqqa juda katta e’tibor qaratadi. Jumladan, shoir sultonlarga nasihatini “Nahl” surasi, 90-oyatda kelgan: “Innalloha ya’muru bil-adli val-ehson”, ya’ni “Albatta Alloh adolat va ehsonga buyuradi” oyati b-n boshlaydi. Allohga bo‘ysunib, adolat o‘rnatish, fuqaroga ehson etish, sultonlarning asosiy vazifasidir. Alloh sultonlarga taxt ato etgan ekan, shukr qilishi, shukr qilsa, davlati ziyoda bo‘lishini uqtiradi shoir:

Shukr qilib aylamasang ushtulum,
Debdur o‘zikim: “Laazidannakum”.

Bayt tarkibida kelgan “laazidannakum” “Ibrohim” surasi, 7-oyatdan olingan bo‘lib, oyatning to‘liq tarjimasi shunday: “Yana Parvardigoringiz bildirgan (bu so‘zlarni) eslangiz: “Qasamki, agar bergan ne’matlarimga shukr qilsangizlar, albatta, (ularni yanada) ziyoda qilurman. Endi agar kufroni (ne’mat) qilsangizlar, albatta, azobim ham juda qattiqdir”. Ulug‘ shoir bu o‘rinda shukrning fazilatlariga alohida diqqatni qaratgan.

Sultonlar ham hamma qatori tuproqdan yaralgan bir bandadir. Ular o‘zlariga omonat topshirilgan xalqni asrab-avaylashlari, hech kimga zulm qilmasliklari lozim. Chunki Alloh qiyomat-

da zolim-u mazlumni savolga tutib, haqni qaror toptiradi:

Negaki, chun hashr kuni zuljalol,
Zolim-u mazlumni aylar savol.

Anga evazdur, sanga sharmandalik,
Anga biyiklik, sanga afgandalik.

Birovga zulm qilishning ulkan gunoh ekani Qur'onning ko‘p suralarida keladi. "Moida" surasining 51-oyatida "Albatta Alloh zolim qavmni hidoyat qilmas" deyilsa, "Niso" surasi, 29-30-oyatlarda: "Ey mo‘minlar, mollaringizni o‘rtalaringizda nohaq (ya'ni o‘g‘rilik, qaroqchilik, sudxo‘rlik, poraxo‘rlik, qimor kabi) yo‘llar bilan yemangiz! Balki o‘zaro rizolik bilan bo‘lgan savdo-sotiq orqali mol-dunyo kasb qilingiz hamda bir-birlaringizni o‘ldirmangiz! Albatta, Alloh sizlarga mehribon bo‘lgan zotdir. Kim haddan oshib, zo‘ravonlik bilan shunday ishlarni qilsa, biz uni do‘zaxga kiritajakmiz. Bu Alloh uchun oson bo‘lgan ishdir" deyiladi.

Shoir valiahd Badiuzzamon mirzoga nasihat qilar ekan, unga umrning vafosizligi, gunohdan saqlanib, ezgu ishlarga qo‘l urish, tavba qilish, adolat o‘rnatish haqida so‘zlab, Haq buyrug‘ini bajarishga undaydi. Shahzodani shohlikka mag‘rur bo‘lmay, Alloh qahrini ham yodda tutishga, Qur'onda keltirilgan "As'hobi fil" voqeasidan ibrat olishga chorlaydi:

Ko‘rki ne bir lahzada bo‘ldi qatil,
Tayri abobil ila "As'hobi fil"

Qildi adam manzili koshonasi,
Har birisin birgina qush donasi.

"As'hobi fil" – fil mingan lashkarlar voqeasi Qur'onning "Fil" surasida bayon etiladi. Bu voqea Muhammad (s.a.v.) tavallud topgan 570-y. da sodir bo‘lgan. Yaman hokimi Abraha boshliq kofirlar qudratli fillarga minib, Ka'bani buzish uchun kelganlarida Allohu taolo tumshuqlarida mayda toshlar keltirgan qushlar b-n ularni halok qiladi. Rivoyat qilinishicha, qushlar tomonidan otilgan har bir tosh bir kofirning boshidan teshib kirib, ostidan chiqib ketgan. Qur'onda aytilishicha, toshlar kofirlarni (qurt-qumursqalar tomonidan) chaynab tashlangan somon kabi (ilma-teshik) qilib yuboradi.

N. karam bobida boylikni yig‘ib, undan xayr-ehson qilmaydigan yoki birov so‘ramaguncha unga biror narsa bermaydigan, bersa ham minnat qiladigan kishilarni saxiylar qatoriga qo‘shmaydi. Xayri ehson qilgan odam xolis, Alloh rizoligi u-n qilsa, munosib kishiga bersa, saxiy bo‘ladi. Saxovatda ham me'yor borligini shoir "yenglar, ichinglar va lekin isrof qilmanglar" ("A'rof" surasi, 31-oyat) mazmuniga ishora qilish orqali eslatib o‘tadi:

Chun dedi Tengriki, "Kulu vashrabu",
Yonida dediki, "Valo tusrifu".

Adab kichiklarga baxtiyorlik, ulug‘larga esa yuksak martabalilik sababidir. Biroq uning ham bir qancha shartlari bor: me'yorida kulish, joyida kamtarlik qilish, birovlarga, ayniqsa, yaqin kishilarga hurmat ko‘rsatish, bolaga yaxshi ot qo‘yib, unga ilm-u adab o‘rgatish kabilar. "Farzi ayn", ya'ni, Alloh Q.da buyurgan "adab", buyuk bir majburiyat borki, u – ota-onani hurmat qilish, ularga qulluq-ta'lim bajo keltirishdir:

Biri erur makrumati volidayn,
Bilki munung qilmog‘idur farzi ayn.

Ota-onani hurmat qilishning farzi ayn ekanligi Q.ning bir qator oyatlarida eslatilgani u-n ham N. bu masalaga jiddiy yondashgan. "Al-Isro'" surasining 23-oyatida aytiladiki: "Parvardigoringiz yolg‘iz uning o‘ziga ibodat qilishlaringizni hamda ota-onaga yaxshilik qilishingizni amr etdi. Agar ularning (ota-onangizning) birovi yoki har ikkisi sening qo‘l ostingda keksalik yoshiga yetsalar, – ularga qarab "uf" tortma va ularning

(so‘zlarini) qaytarma. Ularga (doimo) yaxshi so‘z ayt”.

Shoir shariatdan tashqari, Qur’onga zid bo‘lgan amallarni adab deb hisoblash noto‘g‘riligini ham qayd etadi:

Har nekim ul shar’din etti udul,
Ermas adab aylasang oni qabul.

N. “H.A.”da tavba qilish va uning xosiyatini ko‘p tilga oladi. Ayniqsa, 15-maqolotda vaqtincha yoki qilgan gunohidan biroz uyalib, tavba qilgan kishining tavbasi soxta ekanligini aytadi va xolis, haqiqiy tavbani tushuntirib beradi. Allohning fazli b-n gunoh ishlardan qattiq pushaymon bo‘lgan, afsus va nadomat chekkan, ko‘z yoshlar to‘kib qayta gunoh qilmaslikka qaror qilgan kishi chinakam tavba qilgan bo‘ladi. Tavba Allohning buyrug‘i, fazli va rahmati bo‘lib, har bir kishining poklanish ehtiyojini qondiradi:

“Tubu ilalloh” ila topsa futuh,
Bo‘lsa bu tavbaki, topibdur Nasuh.

Baytda ishlatilgan “tubu ilalloh” “Tahrim” surasining 8-oyatidandir. “Yo ayyuhallazina omanu tubu ilallohi tavbatan nasuho”, ya’ni, “Ey iymon keltirgan bandalar, Allohga xolis tavba qilinglar”, deyiladi oyatda.

N. 20-maqolatda ham Badiuzzamon mirzoni nafsning barcha xohish-istagiga yurmaslikka, qilgan gunohlarga tavba qilishga chaqiradi:

Necha ulug‘ ersa gunah xirmani,
Elga berur oh-u nadomat ani.

Jurm o‘tikim shu’lasi payvast erur,
O‘z sirishki suyidin past erur.

Qur’onning “Al-qoria” surasida shunday oyat (7-oyat) bor: “Bas, kim (hayoti-dunyodalik paytida) zarra misolichalik yaxshilik qilsa, (qiyomat kunida) o‘shani ko‘rur. Kim zarra misolichalik yomonlik qilsa uni ham ko‘rur!”

N.ning ham axloqiy qarashlarida gunoh ishlardan saqlanish, xalqqa foyda yetkazish, ruhni kamol toptirish, har bir yaxshi va yomon amal uchun Alloh oldidagi mas’uliyat tuyish, bu dunyoning foniyligi, oxiratning boqiyligi g‘oyasi singdirilganki, bu yuqoridagi oyat bilan uyg‘undir. Shoirning shaytonsifat, badkirdor, nasihatga quloq solmaydigan kishilar sha’niga bitgan quyidagi baytlari ham uning axloqiy qarashlari mag‘zida Qur’on oyatlari yotganidan dalolat beradi:

Haq so‘zi dun xalqdin imkon emas,
Dev tili loyiqi “Qur’on” emas.

Chunki erur asli yomon nopisand,
Aylamas ul yaxshini aslo pisand.

N.ning Qur’on oyatlaridan istifoda etgan va mazmuni singdirilgan asarlaridan biri “M.Q.”-dir. N. asarda fikrini dalillash va ta’sirchanligini oshirish u-n iqtibos san’ati vositasida 14 o‘rinda Qur’ondan to‘liq yoki oyat parchasini keltiradi. Ayrim o‘rinlarda aqd san’ati asosida Qur’on oyatlari ma’nosini beradi yoki qaysidir bir oyatga ishora qiladi.

Asarda me’roj kechasi bilan bog‘liq voqealar yoritilar ekan, N. hazrat Payg‘ambarimizning rost va sodiqligiga dalil bo‘ladigan ushbu oyatni keltiradi: “Va u (sizlarga keltirayotgan Qur’onni) o‘z havoyi-xohishi bilan so‘zlamas” (“Van-najm” surasi, 3-oyat). Hazrat Payg‘ambar so‘zlarining ilhom yo qandaydir xayolga kelgan so‘zlar emas, balki vahiy ekaniga oyatning davomini keltiriladi: “U (Qur’on) faqat (Alloh tomonidan Payg‘ambarga vahiy qilinayotgan (tushirilayotgan) bir vahiydir” (“Van-najm” surasi, 4-oyat).

N. payg‘ambarimiz Rasuli akramni sifatlab, Qur’ondagi eng ulug‘ ta’riflardan biriga to‘xtaladi: “(Ey Muhammad), darhaqiqat Biz sizni barcha olamlarga faqat rahmat (ya’ni Allohning rahmati-jannatiga yetaklovchi) qilib yubordik” (“Anbiyo” surasi, 107-oyat).

Asarda hamd-u na’tdan keyin adolatli sulton zikriga o‘tiladi va odil podshoh – Xudoning yer-

dagi soyasi, xilofat mulkining farmondori ekani ta'kidlangach, Qur'ondan: "Men yerda xalifa (Odam) yaratmoqchiman" ("Baqara" surasi, 30-oyat)i darj etadi. Aslida bu oyat Odam (a.s)ning yaratilishi bilan bog'liq. Lekin shoir podshoning mas'uliyati va xalifaligini hisobga olib, mazkur oyat uning sha'niga ham tegishli, deydi. Odil podshoga mujda o'laroq: "Bir soatlik adolat, ins-u jin ibodatidan yaxshiroq" degan hadisni keltiradi.

Asarda zolim va johil podsholar qattiq tanqid qilingan. Fir'avn va uning vaziri Homon kabi yomon podshohning vaziri ham yomon bo'ladi, deydi N. Muso (a.s.)ga iymon keltirmagan va ko'p mujodalalar qilgan Fir'avn va Homon qissasi oyatlarda bayon qilingan. Jumladan, "Qasas" surasi, 8-oyatda shunday deyiladi: "... Albatta, Fir'avn, Homon va ularning lashkarlari yanglishgan edilar".

Qur'onning "Qalam" surasi 4-oyatda Payg'ambarimiz (s.a.v) haqida: "Albatta, siz buyuk xulq uzrasiz", deyilgan. N. aynan shu oyatni namuna qilib, shayxulislom, muftiy, qozi va mudarris kabi din, shariatga mas'ul bo'lgan kishilardan Qur'onni yaxshi bilish, o'qigan ilmiga jiddiy amal qilish, axloqli bo'lishni qattiq talab qiladi. "M.Q."da mudarrislar haqida gapirar ekan, "Olim kerakkim, muttaqiy bo'lsa va ogoh va ayturi qolalloh va qola Rasulullo". Ya'ni olim taqvodor, pokiza bo'lishi va oyat hadisdan gapirishi kerak, deb yozadi.

Asarda dehqonlar qut-baraka sohiblari, dunyoni yashnatadigan, odamlarni xursand qiladigan kishilar sifatida maqtalgan. Ularning sigirlari Solih (a.s.)ning tuyasiga o'xshatilgan. Bu o'xshatish ham Qur'on qissasiga ishoradir. Qur'onning "A'rof" surasi, 77, "Hud" surasi 64, "Shams" surasi, 11-15-oyatlarida Solih (a.s.) va uning tuyasi voqeasi bayon qilingan. N.ning "T.A.H."da yozishicha:" Solih (a.s.)din qavmi g'arib mo'jiza tiladilarkim, xora toshdin duo qilib, bir bo'talig' teva chiqorg'il. Solih (a.s.) duo qilib, Haq taolo ul toshni shaq qilib, teva bo'tasi bila tosh arosidin chiqti. Bovujudi mundoq hol ul gumrohlar nubuvvatig'a mu'tarif bo'lmadilar. Va Solih (a.s.) tevasi o'tuz yilg'acha mavjud erdi. Oqibat Samud qavmi ul tevani necha kishi yiborib o'lturttilar va bo'tasi qochib tog' sori yuzlandi". Shundan keyin Samud qavmi Allohning qahriga uchrab, boshlariga balo yog'ilib, hammasi halok bo'ladi.

Dehqonning qo'sh haydashi Odam (a.s.)ga qiyos qilinadi. Chunki birinchi dehqonchilik qilgan kishi Odam (a.s.)dir. N. bu borada Payg'ambarlar qissasida yozadiki: "Va Jabroil alayhissalom hububot (donlar) kelturub, Odamg'a qo'sh surub, ekin ekmak qoidasin o'rgatti".

Asarda Atibbo (tabiblar) zikri ham joy olgan. Unda hoziq tabib Iso ruhullohga tashbeh etilgan. Iso, – deydi N., – chiqqan jonni duo bilan tanga qaytarsa, bunisi davo qilib tanadin chiqadigan jonni o'rniga qaytaradi. Qur'onning "Oli Imron" surasi, 49-oyatda shunday deyiladi: "Shuningdek, uni Isroil avlodiga payg'ambar (qilib yuboradi va u aytadi): "Men sizlarga Rabbingiz huzuridan (payg'ambarligimga dalolat qiluvchi) mo'jiza bilan keldim; men sizlarga loydan qush shaklini yasab, unga dam ursam, u Allohning izni bilan (chinakam) qush bo'ladi. Ko'r va pesni tuzataman. Allohning izni bilan o'liklarni tiriltiraman hamda sizlarning yeyayotgan va zaxirada saqlayotgan narsalaringizni aytib beraman Agar mo'min bo'lsangiz, albatta, bu ishlarda sizlar uchun alomat bordir".

N. o'z davrida qozilarni Qur'on va hadis asosida hukm chiqarishga, adolatli bo'lishga undaydi: "Ilm-u taqvosidin ko'ngullarda shukuh va diqqat, farosatidin bediyonatlar ko'nglida anduh. Ko'ngli Kalomulloh ahkomidin qaviy va hukmida muqtado ahodisi mustafaviy".

Ulug' shoir asarida o'tmish an'naga muvofiq hamida af'ol (maqtalgan fe'llar) va zamima xisol (yomon xislatlar) haqida batafsil to'xtaladi. M-n, Kalomi sharifning saksondan ortiq oyatlarida Allohni zikr qilishga buyurilgan. N. zikr sharhida to'g'ridan to'g'ri biror oyat keltirmagan. Lekin zikrning "Haq yodi bilan mashg'ullik" ekaniga urg'u berar ekan, o'nlab oyatlarni nazarda tutgan. "M.Q."ning "Tavba zikrida" tavbaning bar-

cha shart va talablari, xosiyat va fazilatlari birma-bir aytib o‘tilgan.

Ayni paytda haqiqiy tavba ilohiy inoyat ekanini ta’kidlagan ulug‘ shoir Qur’ondan: “... Bu Allohning fazlidirki, uni O‘zi xohlagan (bandasi) ga berur”. (“Moida” surasi, 54) oyatini keltirish bilan kifoyalangan.

“M.Q.”dagi 127 ta tanbehdan o‘nga yaqinida biror oyat yoki oyatning parchasi qo‘llangan. To‘g‘ridan to‘g‘ri oyat keltirilgan tanbehlardan biri shunday: “... xudpisand (mutakabbir, manman, o‘zinigina sevuvchi) kishidirkim, barcha yomon ahvollari o‘ziga yaxshi ko‘rinadi. U badshakl zot o‘zini Yusufi Kan’oniy deb, “Ankar al-asvot” tovushini Yusufi Andigoniy xonishiga o‘xshatadi. “Ankar al-asvot”– “ovozlarning eng yoqimsizi”, degan ma’noni bildirib, Qur’onning “Luqmon” surasi, 19-oyatida uchraydi. Oyatda aytilishicha, Luqmon (ibni Bouro) uni (ba’zilar payg‘ambar ayrimlar valiy yo hakim deyishgan) o‘z o‘g‘liga shunday nasihat qilgan: “(Yurganingda) o‘rtahol yurgin va ovozingni past qilgin! Chunki ovozlarning eng yoqimsizi eshaklar ovozidir”.

Ehson haqidagi 9-tanbehda yaxshilikka, ezgulikka targ‘ib qilinadi va inson birovga yaxshilik qilsa, albatta, unga ham yaxshilik etadi ma’nosidagi “Ehson (ezgulik)ning mukofoti faqat ehson (ezgulik)dir” (“Rahmon” surasi, 60) oyatini dalil qilib keltiradi.

“Yaxshilarga ergashish haqidagi 19-tanbehda: ”Yaxshilarg‘a erishmak – itni poklar chargasiga qotti va yomonlarg‘a qorishmoq – anbiyo avlodin jahannamg‘a uzatti” deyiladi. Bu jumlada ikki oyatga ishora qilingani ko‘rinib turibdi. Birinchisi “Kahf” surasi 9-22-oyatlardagi As’hobi Kahf (g‘or egalari)ga ergashgan Qitmir – it bo‘lsa, ikkinchisi “Hud” surasi 45-46-oyatlardagi Nuh (a.s.) ning otasiga itoat qilmagan va jahannamga ketgan o‘g‘li nazarda tutilgan.

Ulug‘ shoir yozadi “...har kishikim, bir qavmning suluk va ohangin tuzar, tadrij bila ham-ul qavmning rangin tutar. Har kimgakim, payravlig‘ etar, ul mutobaat xosiyatidin ul yetgan yerga etar. Agar bu so‘z sanga ko‘runsa mahol, As’hobi Kahf ila itlaridin hisob ol”. Quyidagi qit’ada va Qur’onda ham Nuh (a.s.) o‘g‘liga, shuningdek, As’hobi Kahf itiga ishora qilingani ko‘rinib turibdi:

Nabiy o‘g‘li tomug‘ni qildi maskan,
Tomug‘ ahli guruhin chun erishti.

Va lekin jannat ahli payravi it,
Yetishti qaydakim ul el yetishti.

37-tanbehda amalsiz olim ustiga kitob yuklatilgan eshakka o‘xshatilgan. Aslida bu tamsil “Juma” surasi, 5-oyatda shunday keladi: “Tavrot yuklatilgan (berilgan), so‘ngra uni ko‘tarmagan (unga amal qilmagan) kimsalarning misoli xuddi kitoblarni ortib ketayotgan eshakka o‘xshaydi. Allohning oyatlarini inkor etgan kishilarning misoli naqadar yomondir. Alloh zolim qavmlarni hidoyat etmas”.

Dinimizda yolg‘onchilik ulkan gunoh hisoblanadi. Hadislardan birida rivoyat qilinishicha, hazrat Payg‘ambarimizdan so‘rashga: Mo‘min odam baxil bo‘lishi mumkinmi? Ha, deganlar. Xasis bo‘lishi mumkinmi? Ha, deganlar. Yolg‘onchi bo‘lishi mumkinmi, deganlarida, Yo‘q! deb javob berganlar. N. ham bu mavzuga ko‘p e’tibor bergan. 50, 51, 59, 60, 123-tanbehlarda yolg‘onchilik qoralangan. M-n: “Yolg‘onchini debdurlarki, Tengri dushmanidur”. Chunki Qur’onning yuzlab oyatlarida Alloh va’dalarini va Payg‘ambarlar xabarlarini inkor qilgan kishilar la’natlangan va do‘zaxga mahkumliklari aytilgan.. Jumladan, “Ankabut” surasi, 68-oyatda shunday deyilgan: “Alloh sha’niga yolg‘on to‘qigan yoki haqiqat (Qur’on) kelgan chog‘da uni yolg‘onga yo‘ygan kimsadan ko‘ra kim ham zolimroqdir. Kofirlar uchun jahannamda joy bor emasmi?”

“M.Q.”da kibr-u manmanlik ham tanqid qilingan. Asarning 8-tanbehida o‘qiymiz: “Takabbur shayton ishi va biyiklik (ulug‘lik da’vo qilish) nodon ishi. Mutakabbir Tengri do‘stlari olida mat’un (aybdor va xo‘rlangan) va Tengri qoshida mardud va mal’un”. Bu satrlarni o‘qir ekanmiz N.ning nimaga ishora qilayotganini anglaymiz va bevosita ko‘z oldimizga Qur’onda

naql qilingan Odam (a.s.) va Shayton qissasi keladiki, yuqorida biz bu mavzuni sharhlab o‘tdik.

Qur’ondan iqtiboslar keltirilgan va bu ilohiy kitob sharaflangan asarlardan biri N.ning “N.M.” tazkirasidir. Asarda Qur’on 64 marta, Mus’haf 5 marta, Kalomulloh so‘zi esa 8 marta zikr qilingan. Shu raqamlarning o‘zidan ham bu kitobda Qur’on b-n bog‘liq oyatlar, turli naql-u rivoyatlarga alohida e’tibor qaratilganligi ma’lum bo‘ladi.

N. tazkirasi o‘ziga xos uslub va yo‘nalishga ega bo‘lgani u-n asarda ulug‘ shoirning Qur’on ga bo‘lgan munosabati ham o‘zgacha ruhda namoyon bo‘lgan. U mazkur asarida bir qator shayxlarni zikr qilar ekan, Qur’onning ular hayotida muhim o‘rin tutganligini va ularning Qur’onga bo‘lgan munosabatlarini hamda Qur’on b-n bog‘liq g‘ayritabiiy voqealarni ko‘rsatib beradi. N.ning yozishicha, Bag‘dodda mu’tazila oqimi davlat tepasiga kelgandan keyin ahli sunna val jamoaning mazhab imomlaridan biri Imom Ahmad Hanbalga Qur’onni maxluq deb aytishni taklif qilishgan. Ammo u kishi bu so‘zni aytmagan. Natijada, qari va zaif kishiga ming qamchi urib azob berganlar. Oqibat shu azob sababli olamdan o‘tgan. Shayx Muhammad bin Yusuf Banno yumush bilan band bo‘lsa-da, har kuni Qur’on ni bir xatm qilgan. Shayx Muhammad bin Fozaning esa har kuni Qur’onni uch marta xatm qilish virdiga, vazifasiga aylangan. Shayx Abulxayr Asqaloniyning xabar berishicha, Abubakr Kisoyining uxlagan payti ko‘ksidan Qur’on ovozi chiqib turgan. Shayx Abulhasan bin Sha’raning esa qabridan Qur’on o‘qigan ovozi chiqar va uning ziyoratiga borganlar buni eshitishar ekan. Shayx Abu Abdulloh Duniy Qur’onni ko‘p tilovat qilar ekan qachonki, zakot yo sadaqa oyatiga yetsa, “xushhol bo‘lub, egnidin bir nima chiqarib” yonidagilarga uzatib, buni “eshikdin tashqari chiqarib qo‘yung”, kimga tegsa olib ketsin, deb aytar ekan. Mavlono Shihobuddin va Shayx Faxruddin Ibrohim Iroqiylar kichik yoshlaridan Qur’onni hifz qilgan ekanlar.

N.ning naql qilishcha, Shayx Abunasr Sarroj Ramazon oyida Bag‘dodga borgan. Shuniziya masjididan unga bir hujra berib, hayitgacha darveshlarga imomatlik qilishni topshirganlar. U tarovihda Qur’onni besh marta xatm qilgan. Va mas’ul xodim har bir kecha bitta nonni uning hujrasiga eltib bergan. Iyd (hayit) bo‘lgach, Bag‘doddin ketgan. Hujrasiga qarasalar, unga berilgan bir oylik non hujraning bir burchagida turibdi. Shayx Abulhasan Xaraqoniy aytar ekanki, “Kishi surud etsa va Haqni tilasa, yaxshiroqdurki, Qur’on o‘qusa va g‘ayrni tilasa”.

N. Qur’on b-n bo‘lgan ajib bir voqelarni ham kitobida keltirib o‘tadi. Uning yozishicha, Mavlono Vahiduddin Dehlining taqvodorlaridan biri bo‘lgan va u shunday rivoyat qilibdi: “Bir jum’a kechasini Mavlono Alouddin Kirmoniyning hazirasi (maqbara)da ihyo qilur (ya’ni tunni uxlamasdan o‘tkazur) edim. Nogoh ko‘rdumki, qubur (qabrlar) ochila boshladi va ul qabrlardin amvot (o‘liklar) chiqib, Mavlononing munavvar marqadi tegrasiga yig‘ilurlar erdi. Chun anda xotirg‘a kulliy jam’iyat dast berdi, Mavlononing ham qabri ochildi va Mavlono qabrdin bosh chiqardi va “Kalomulloh” tilovati bunyod qildi. Va ul ahli qubur ham anga muvofaqat bila tilovatqa mashg‘ul erdilar subh tulu’yigacha. Chun subh bo‘ldi, qubur ahli barcha o‘z oromgohlarig‘a kirdilar. Va Mavlono ham asliy maskanig‘a mayl qildi va ochilgan qubur yana barcha bitti va muttasil bo‘ldi”.

Albatta, bu kabi rivoyatlar manoqibiy xarakterga egadir. Ulug‘ shoir tazkirasida manoqib va rivoyatlar asosida Shayx Muso Sadroniyning bir kecha kunduzda “Kalomulloh”ni “yetmish ming qatla xatm” qilgani, Mavlono Muhyi esa “har kun “Kalomulloh”ni bir xatm” qilgani haqida ham aytib o‘tadi.

“N.M.”da N. shayx Abu Abdulloh Hazramiyni zikr qilar ekan, uning Shayx Murta’ish savollariga faqat Qur’on oyatlari b-n javob bergani ham diqqatni jalb etadi. Ulug‘ shoirning yozishicha, shayx Abu Abdulloh Hazramiy yigirma yil davomida tasavvufdan so‘z aytmay yurgan. Shayx Murta’ish degan kishi aytadiki, uni ko‘rdim va undan tasavvuf haqida savol qilganimda, men-

ga Qur’onning quyidagi oyati b-n javob berdi: “Mo‘minlar orasida Allohga bergan va’dalariga sodiq kishilar bordir” (Ahzob surasi: 23-oyat). Ularning sifati qanday dedim: Dedi: “Ko‘zlari o‘zlariga qaytmaydi, dillari bo‘m-bo‘sh bo‘lib qoladi”. (“Ibrohim” surasi, 23-oyat). Dedim: alarning mahali qaysi ahvoldindur? Dedi: “Albatta, taqvodorlar jannatlarda, Qodir podshoh huzuridagi rozi bo‘lingan o‘rinda bo‘lurlar”. (“Qamar” surasi, 55-oyat). Dedim: orttur. Dedi: “O‘zing aniq bilmagan narsaga ergashma. Chunki quloq, ko‘z, dil – bularning barchasiga inson mas’uldir”. (“Isro’” surasi, 36-oyat).

N. “S.Z.” qasidalarida ham Allohga hamd, insonning yaratilishi, mukarram xilqat ekani, Shaytonning la’natlangani, osmon jismlari, hazrat Payg‘ambarimizning me’rojlari, namoz, ro‘za, zakot va haj kabi masalalarning har birini Qur’on oyatlari b-n uzviy bog‘liq holda yoritib beradi.

“X.M.” devonida ishqiy-irfoniy va ma’rifiy qarashlarini ifoda etishda Qur’on oyatlaridan yoki oyatlar ma’nolaridan juda mahorat b-n foydalanilgan. Ulug‘ shoir “X.M.”da Qur’ondan juda kam iqtibos olgan. M-n, “G‘.S.” devonida ilohiy kitobdan to‘rt joyda: “av adno”, “lo iloha illalloh”, “vash-shams”, va “mo zog‘a” iboralari keltiriladi. Qolgan o‘rinlarda baytlar zamiriga Qur’on oyatlari ma’nolari singdiriladi va mazmunning mutanosibligi hamda teranligi ta’minlanadi. N. lirik qahramonning qalb kechinmalari, ishqiy va irfoniy holatlari, visol va hijrondagi iztiroblarini yoritish uchun Qur’onda kelgan Odam, Nuh, Muso, Shuayb, Xalil, Dovud, Iso, Ahmadi Mursal, Bilqis, Maryam kabi payg‘ambarlar va qahramonlarni hamda ularga xos sifatlarni talmeh san’ati asosida qo‘llaydi. Devonlarda taqdir, tavakkul, o‘lim, rizq, ilmi g‘ayb, qiyomat kabi masalalar b-n bog‘liq baytlar ham uchraydiki, ularning Qur’ondagi ma’nosini bilmasdan turib, lirik qahramonning maqsad-muddaosini chuqur anglab bo‘lmaydi. N. “G‘.S.” devonida Qur’onni yodlab, hofiz bo‘lgan kishiga bir ruboiy bag‘ishlagan va barcha ishda bu insonga Qur’onning rahnamo va balogardon bo‘lishini tilagan:

Bu davrda yo‘q sen kibi xushxon hofiz,
Huffoz aro sarhalqayi davron hofiz,
Qur’ong‘a sen o‘lg‘on kibi yakson hofiz,
Bo‘lsun sanga barcha ishda Qur’on hofiz.

Xullas, N. ijod jarayonida Qur’on oyatlaridan unumli foydalandi. Qur’on oyatlari yoki oyatlar mazmuni vositasida o‘zining bir qator: diniy, tasavvufiy, ijtimoiy, axloqiy qarashlarini nihoyatda mukammal va ta’sirli tarzda ifodalashga erishdi.

Ad.: *Алишер Навоий. ТАТ. 10 жилдлик, 1-10-жилдлар. – Т., 2011; Али ибн Аҳмад Найсобурий. Қуръони карим оятларининг нозил бўлиш сабаблари. – Т., 2019; Алоуддин Мансур. Қуръони карим. Ўзбекча изоҳли таржима (таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур). – Т., 2004; Абу Закариё Яҳё ибн Шараф Нававий. Риёз ус-солиҳин. (Солиҳлар гулшани). – Т., 2015; Ислом энциклопедияси. – Т., 2017; Муҳаммад Саййид Тантовий. Пайғамбарлар тарихи. (1, 2, 3, 4-китоблар). – Т., 2021; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик, 1–4 – жилдлар. – Т., 1983-1985; Давлатов О. Алишер Навоий шеъриятида Қуръон оятлари ва ҳадисларнинг бадиий талқини: филоло.ф.б.ф.док....дисс. – Самарқанд, 2017; Кароматов Ҳ. Қуръон ва ўзбек адабиёти. – Т., 1993; Абдулқодир Абдураҳим ўғли. Ақоид дарслиги. – Т., 2007; Муҳаммад алайҳиссаломнинг мўъжизалари. – Т., 1993; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва таъбироти ирфони. – Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.); Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005.*

S.R.

QUSTANTANIYA (Konstantinopol) – hozirgi Turkiyada joylashgan Istanbul shahrining qadimgi nomi. Jahondagi eng nufuzli siyosiy-iqtisodiy, tarixiy-madaniy markazlardan biri. N.ning “S.S.” dostonida 2-iqlim yo‘lidan kelgan musofir Bahromga Zayd Zahhob haqidagi hikoyani so‘y-

laydi. Hikoyadan ma’lum bo‘lishicha, Zayd Rum shohining saroyida mashhur zargar bo‘lib, shohga usti oltin b-n qoplangan taxt yasab bergach, qallobligi fosh bo‘ladi va zindonband qilinadi. Zargar aql-u tadbir ila u yerdan xalos bo‘ladi va shoh askarlaridan Q.ga qochib ketadi:

Necha kun qat’ etib necha mahfil,
Qildi Qustantaniyani manzil.

Shuningdek, shoir “T.M.A.” asarida Shopur Binni Ardasher haqidagi faslda shohning otasi o‘rniga taxtga o‘tirgani, yurtni oqilona va odillik b-n so‘raganini ta’kidlaydi. Q.da Rum qaysari haddidan oshgani haqida Shopurga arz qilishganda, Shopur butun sarkardalik mahoratini namoyish etib, adolatsizlikka barham bergani aytiladi: “Va anga arz qildilarkim, Qustantaniyada Rum qaysari o‘z haddidin tajovuz qilibdur. Shopur Nasibin shahrin muhosara bila oldi va qaysarning xazoyinini tasarruf qildi. Qaysar o‘z haddini bilib, shafi’lar vosita qilib, xiroj qabul qildi. Shopur fath va nusrat bila qaytti...”

Ad.: Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; ЎзМЭ. 5-жилд. – Т., 2004.

S.R.

“QULOQDA ASRA GARONMOYA SO‘ZNI-YU FIKR ET...” – N.ning “G‘.S.” devonidan o‘rin olgan qit’a.

Quloqda asra garonmoya so‘zni-yu fikr et,
Ki dursiz o‘lsa, ne bo‘lg‘usidur sadaf holi.
So‘zungni dag‘i ko‘ngul ichra asrag‘ilkim, hayf,
Kim o‘yla durjni guhardin etkasen xoliy.

Bu durj-u ikki sadafni to‘la dur etkanga,
Zihi uluvvi guhar, balki gavhari oliy.

Gapirish layoqatiga ega odam, boshqalarning fikrini diqqat b-n tinglay bilishi ham kerak. So‘zga quloq solmoq oddiy holatmas, aql va farosat nishonasi. E’tibor bersangiz, aqli o‘smagan, farosati chala kimsalarda eshitish qobiliyati odamni asabiylashtiradigan darajada past bo‘ladi. Ular gapirmaslik zarur paytlarda tillariga erk berishadi. Kerakli so‘z va ma’nolarni ajratib, mushohada etish o‘rniga bo‘lmag‘ur yoki mayda gaplarni o‘rtaga suqishadi. “Garonmoya so‘z” – chuqur ma’noli, foydali so‘z. N. she’rxonni ana shunday so‘zni qadrlashga chaqirib, uni: “Quloqda asra”, – deydilar. Qit’aning dastlabki satrida ikki narsaga da’vat qilingan. Birinchisi, qimmatbaho so‘zni asrab-avaylash. Ikkinchisi – fikrlash. Lekin hazrat o‘quvchining diqqatini xoli qo‘ymasdan yana o‘zlari fikr aytadilar. “Ki dursiz o‘lsa ne bo‘lgusidur sadaf holi”. Demak, dursiz sadafga o‘xshab qolmaslik uchun:

So‘zungni dag‘i ko‘ngul ichra asrag‘ilkim, hayf,
Kim o‘yla durjni guhardin etkasen xoliy.

Ko‘ngil va quloqni so‘z durlari b-n boyita olgan kishiga tahsini oliy guharigina emas, balki Haqning gavhari nasib etadi.

Agar so‘z ma’nisiz, eshituvchiga biror bir foyda yetkazmaydigan, quloqda shovqin, boshga og‘riq bo‘lib yopishishdan bo‘lak “hikmati” bo‘lmasa, albatta, bunday gap-so‘zlardan tilni tiyish kerak.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Ҳаққул И. Касби камол ўзни танишдир. – Т., 2021.*

I.H.

QURONBEKOV Ahmadqul – (1943-2021). 1966-y. Toshkent davlat universitetining Sharq fa-

kultetida fors tili va adabiyoti bo‘limini imtiyozli diplom bilan tugallagan. 1988-y.da “Amir Xusrav Dehlaviyning “Oyinayi Iskandariy” asarida otlarning semantik-struktur tahlili” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini, 1995-y.da “Hofiz g‘azaliyoti leksikasining semantik strukturasini tadqiq etish yo‘sinlari” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

Ilmiy tadqiqotlari fors tilshunosligi va fors, o‘zbek klassik adabiyoti muammolariga bag‘ishlangan. U tomonidan 120 dan ziyod ilmiy ishlar chop etilgan, shu jumladan, 17 ta monografiya, 20 darslik, o‘quv qo‘llanma va 60 b.t. fors tilidan tarjimalar chop etilgan.

N.ning 565 yilligi munosabati b-n 2006-y. da “Alisher Navoiy va forsiy-dariy adabiyoti” ToshDShUda, 2011-y.da “Alisher Navoiy ijodiy merosi va sharq adabiyoti: adabiy aloqalar, an’ana va badiiylik masalalari” respublika konferensiyalarining tashkilotchisi va ilmiy ma’ruzalar bilan qatnashgan ishtirokchisi.

N.ning ijodiy merosi bo‘yicha 27 ta ilmiy maqolasi matbuotda e’lon qilingan.

Q.A. – ToshDShUda 2012-y. yanvar oyidan boshlab “F-1-135, Alisher Navoiy asarlari konkordansining ilmiy-uslubiy tadqiqi” loyihasining rahbari bo‘lgan. Olim rahbarligida 2012-y. da “H.A.”dostoni, 2013-y.da “F.Sh.”, 2014-y.da “L.M.” 2015-y. “S.S.” dostonining konkordansi ishlab chiqildi va nashr etildi. 2015-y.da “Alisher Navoiy asarlari bo‘yicha konkordans tuzish qo‘llanmasi” va “Alisher Navoiy “Xamsa dostonlarida ramz va timsollar” monografiyasi tayyorlanib, nashrdan chiqarildi.

Ad.: *Quronbekov A. Alisher Navoiy asarlari bo‘yicha konkordans tuzish qo‘llanmasi. – T., 2015; Quronbekov A. Alisher Navoiy “Xamsa” dostonlarida ramz va timsollar. – T., 2015.*

S.O‘.

“QUT UL-QULUB” (“Ko‘ngillar ozig‘i”) – N.ning fors-tojik tilidagi “S.Z.” qasidalar to‘plamining 4-qasidasi. Suluk ahlining qalbiga ma’naviy oziq deb bilganligi u-n shoir 120 baytlik ushbu qasidasini shunday atagan. U pand-nasihat va foydali mulohazalar bayonidan iborat. Qasidaning 55 bayti dunyoning o‘tkinchiligi, falakning zolimligi, umrning bebaqoligi, omonat dunyoga ortiqcha berilishning nojoizligidan bahs etadi. M-n, uning ilk bayti quyidagicha:

Jahon, ki marhalayi tangi shohrohi fanost,
Dar o‘majo‘y iqomat, ki rohi shoh-u gadost.

Tarj.: Dunyo degani fano deb atalgan shoh-ko‘chaning torgina bir manzilidir, bas, unda makon qurmaki, u shoh-u gadoning o‘tar yo‘lidir.

Shoir aytmoqchiki, dunyo omonat manzil bo‘lgach, unda umrguzaronlik qiladigah shoh ham, gado ham abadiy qolmaydi, shunday ekan, dunyoga ustun bo‘laman, deb urinish behuda. Bu b-n N. dunyoni butunlay qoralamoqchi, odamlarning yashashdan hafsalasini sovutmoqchi emas. U qasidada, birinchidan, haddan ziyod dunyoparastlikni, Xudoni, binobarin, chin insoniy mohiyatni unutib qo‘yishga sabab bo‘ladigan qusurlarning ildizini ochib ko‘rsatishni niyat qiladi. Bu aynan mol-dunyoga berilish illatiga borib taqaladi. Sharq so‘z san’atida keng ishlangan ayni mavzuga murojaat qilar ekan, shoir o‘zining buyuk salaflari izidan borib, foniy umrni ezgu ishlar b-n boqiy qilish, ruhni dunyo zindonidan qutqarish, oxirat u-n tayyorgarlik ko‘rish kabi azaliy va abadiy g‘oyalarni ilgari suradi. Ikkinchidan, N. “Q.Q.”da mavzu qamrovini keng olib, qazo va qadar masalasini qasida markaziga qo‘yadi. Bu dunyodagi hamma narsa Yaratgan hukmidan tashqari emas, charxning aylanishi, samoviy jismlar harakati, tabiatdagi o‘sish-o‘zgarishlar, kecha-yu kunduz, tug‘ilish va o‘lim – hammahammasi Alloh taolo tomonidan azaldan belgilab qo‘yilgan. Uchinchidan, hamma narsa harakatda, faoliyatda. Yer tinch bo‘lib ko‘rinadi, ammo bu yuzaki qaraganda shunday. Aslida tuproq ichida, Yerning qatlamlarida ming-ming turli harakat bor, o‘zgarish, talpinish bor. Alloh biror majudotga, biror zarraga osuda hayot bermagan. Shundan

bizning ham oromimiz yo‘q, bir lahza bo‘lsa-da tinch turolmaymiz.

N. o‘z odatiga ko‘ra, “Q.Q.”ning ham 18 baytini nojo‘ya axloq tanqidiga bag‘ishlaydi.

“Q.Q.” qasidasi o‘zidan keyin keladigan “Minhoj un-najot” qasidasiga bog‘lanib ketadi. Bunda ko‘tarilgan axloqiy masalalar unda xiyla kengaytirib qalamga olingan.

Ad.: *Алишер Навоий. Қут ул-қулуб. ТАТ. 10-жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Комилов Н. Хизр чашмаси. – Т., 2005.*

N.K., E.O.

QUTBIY (XV asr) – shoir. Sulton Mas’ud Mirzoning mulozimi bo‘lgan. Sho‘xta’b kishi bo‘lib, turkiy va forsiyda yetuk she’rlar yozgan. N. “M.N.” tazkirasida uning turkiy ijodidan quyidagi matla’ni keltiradi:

G‘uncha gar nisbat qilur o‘ziga dildor og‘zini,
Ey sabo yeli, to‘la qon ayla zinhor og‘zini.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

E.O.

QUSHAYRIY ABULQOSIM (To‘liq ismi: Abu Qosim Abdulkarim bin Havozin bin Abdulmalik bin Talha bin Muhammad Nisoburiy, Qushayriy – 986-1072), “Zaynu ul-islom” (islom ziynati) unvoniga ega bo‘lgan Q.A. aqidada ash’ariyaga mansub, shofe’iy mazhabining faqihi, tasavvuf ilmining yetuk olimlaridan. N. u haqda: “har fanda” risolalari, “har ilmda” asarlari borligini” va “Latoyif ul-ishrat” tafsirining sohibi ekanini aytadi. Q.A. Xurosonda o‘rnashib qolgan arablardan bo‘lib, Nishopurda tahsil ko‘rgan. Uzoq yil davomida shariat ilmlarini o‘qib, puxta o‘zlashtirgan. Hadis ilmiga ko‘p ahamiyat bergan. Umrining oxirgi yillari 27 yil davomida talabalarga hadisdan dars bergan. Shayx Abu Ali Daqqoqning muridi va kuyovi, Abu Ali Formadiyning ustozi. Q.A.ning tasavvuf ta’limotini egallashida qaynatasi Abu Ali Daqqoqning ta’siri juda kuchli bo‘lgan. Q.A. tasavvufga oid “Risolayi Qushayriy” asari b-n mashhur. Bir qancha she’rlari ham saqlanib qolgan. N. “N.M.” asarida uni alohida zikr qiladi va Foris b. Iso Bag‘dodiy, Junayd Bag‘dodiy, Abdulloh Balaboniy, Shayx Abu Abdulloh Boku, Abu Ali Formadiylar haqida yozarkan, Q.A.ni ham eslab o‘tgan. N. Q.A. ning tavhid haqida quyidagi gapini keltiradi: “Tavhid − Alloh ismi zohir bo‘lganda rasm va tabiat asarining zavol topishi, tajalliy nurlari porlaganda, begona narsalarning foniy bo‘lishi, ilohiy haqiqatlar oshkor bo‘lganda maxluqotlarning arzimasligi, zikri ulug‘ Jabborga yaqinlik mavjud bo‘lganda ag‘yorlarning ko‘rinmasligidir”.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Абдулкарим Кушайрий. Кушайрий рисоласи. – Истанбул., 1991.*

S.R.

“QUSHCHI VA SAYYOD ZIKRI” – “M.Q.” asarining o‘ttiz beshinchi fasl nomi. Unda N. o‘zining hayotiy kuzatishlari asosida qush ovchisi va ovchilar hamda qushbegi-ovchilar boshlig‘i (mansab) haqida ma’lumot yozgan. Asarning umumiy tanqidiy ruhidan kelib chiqib, N. mazkur faslni kuchli tanqidiy ruhda yozgan. N. nafrat b-n ularning qush va hayvonlarni qanday ilintirishlari, nayranglari, yetkazgan zararlari, shum nafs, nopok ishlarini tasvirlagan. Tasvirda u saj’, sifatlash, o‘xshatish, mubolag‘a kabi she’riy san’atlaridan unumli foydalangan. Chunonchi: “Qo‘shchi sayyodlarg‘a muqtado va hukmron va bu jamoat anga raiyyat va ma’muri farmonkim, ilgida qush kecha-kunduz ranj va mashaqqatg‘a tush. Kecha uyqusi harom, emgakdin yo‘q anga orom. Nafis hazzi uchun bir gunohsiz ayog‘iga solib band va uzun tunlar aning azobi bila xursand. Amal rishtasin tama’ ignasiga chekib, ul bezabonning ko‘rar ko‘zni ham tikib. Maqsudi ani sayyod qilmoq va o‘zga jonlig‘lar qasdig‘a jallod qilmoq”. N. bu toifaning tamagirligi xu-

susida faslda maxsus to‘xtalgan va noroziligini “Qush ta’rifida degani barcha lof, o‘z tahsinida so‘zlagani bori gazof. Muncha mazmun amrig‘a bois nafs komi, xoh emgagi, xoh tomoshasi, xoh kabobi, xoh bek in’omi”, deb bayon qilgan va xulosani masnaviy b-n yakunlagan.

Masnaviy:

“Bular boisi barcha nafsoniyat
Ki, anda doxil insoniyat.
Ko‘nolg‘a olib qayda qo‘nsa diram,
Ot arpasi ham, qushig‘a to‘ma ham”.

N. asarlarida hukmdorlarning ov ishlariga berilib ketishlari, ularning shikor b-n bog‘liq usul va marosimlarini tanqid qilib, poetik lavhalar yozgan. N.ning “S.S.” dostoniga murojaat qilsak, u bu haqda shoh Bahrom misolida mahorat bilan badiiy talqinlar yaratganini ko‘ramiz.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. TAT. 10 жилдлик, 9-жилд. – T., 2011; Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. TAT. 10 жилдлик, 7-жилд. – T., 2011; Шамсиев П., Иброҳимов С. Навоий асарлари луғати. – T., 1972.*

A.A., Q.E., B.R.

QO‘LDOSH MIRZO (1941–2017, O‘sh, Qirg‘iziston)– shoir, yozuvchi, tarjimon va adabiyotshunos. Qirg‘iziston yozuvchilar uyushmasi a’zosi. U 1960-yy.da Qirg‘izistonda o‘zbek adabiyotini rivojlantirish va taraqqiy ettirish maqsadida tashkil etilgan “Ilhom” ijodkorlar adabiy klubining ta’sischilaridan. Q.M. qirg‘iz, rus, arab va fors tillarini mukammal bilgan, Yevropa va rus adabiyotidan tarjimalar qilgan. Uning “Zamon qo‘ng‘irog‘i”, “Vafo shevasi”, “Xonalarda chiroqlar porlar” she’riy to‘plamlari, “Boburmirzoning toylog‘i”, “Zarrin zarralar”, “Qishlab qolgan qaldirg‘och”, “Gavhar”, “Jahon seniki”, “Sotilgan ko‘z”, “Savil qolgan guldasta”, “Dilxiroj”, “Mubtalo bo‘ldim senga” kitoblari, “O‘sh adabiy muhiti”, “Tosh bilan suhbat”, “Qon va inson” nomli adabiy-ilmiy asarlari chop etilgan. Q.M. Sharq klassik adabiyoti namyondalari, xususan, temuriylar davrining yorqin namoyondalari haqida qator nasriy asarlar bitgan. Ayniqsa, N. ijodiga alohida mehr bilan qaragan adib 1978–79-yy.da “Mubtalo bo‘ldum senga” tarixiy qissasini yozgan. N. shaxsiyati va badiiy obidalari samimiy tasvirlangan asar hozirgi o‘zbek nasrining betakror namunalaridan biridir. Alisherning bolalik damlari, Mashhadda kechgan hayoti va tahsil damlaridan hikoya qilingan boblari, ayniqsa, o‘smir yoshlarni N.ga bo‘lgan tasavvurlarini yorqinlashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, N. biografiyasiga oid sahifalar o‘zining jonli ifodasi bilan kitobxonda qiziqish uyg‘otadi.

Ad.: *Қўлдош Мирзо. Мубтало бўлдум сенга. – T., 1978–1979.*

S.O‘.

QO‘NG‘IROT – turkiy qabila-urug‘ nomi, etnonim. Bu qabila-urug‘ nomi haqida tarixiy-adabiy manbalarda eslatma, xabarlar bitilgan. N. o‘zining ham adabiy, ham tarixiy aspektda yozgan, ma’lum ma’noda hujjat hisoblangan “V.” asarida Q. atamasini barlos, qiyot, arlotiy, tarxoniy, uyg‘ur kabi turkiy qabila-urug‘ nomlari qatorida sanalgan. Bu atama ifodasida nasab bilan emas, balki hasab b-n yuqori mavqega erishgan “qo‘ng‘irot hasablik mutamakkinlar”ni tilga olgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Вақфия. TAT. 10 жилдлик, 9-жилд. – T., 2011.*

B.R.

QO‘RQUT OTA – shayx. Xalqimiz orasida “Qo‘rqqanlarimni qut qilib qaytar” degan duo va “Qo‘rqut ota qo‘llasin” degan iltijo bor. Bu duo, iltijolar aslida turkiy xalqlar orasida mashhur Q.O., dada Qo‘rqut deb tilga olinadigan hojatbaror donishmand – valiy nomi b-n bog‘liqdir. Hatto o‘n ikki hikoyadan iborat “Dada Qo‘rqut” kitobi ham mavjud. U b-n bog‘liq manoqiblarda u o‘g‘uzlarning g‘am-tashvishi b-n hayot kechirgani, “Kelimli-ketimli dunyo”da adashganlarga,

qiyin ahvolga tushganlarga beg‘araz yordam berganligi, doston va termalar aytib, ustozlik qilganligi aytiladi.

N “N.M.” asarida bu hojatbaror ulug‘ zot haqida shunday yozadi: “Turk ulusi arosida shuhrati andoq ortug‘roqdurki, shuhratqa ehtiyoji bo‘lg‘ay. Mashhur mundoqdurki, necha yil o‘zidin burunqini, necha yil o‘zidin so‘nggi kelurni debdurlar. Ko‘p mav’izaomuz mag‘izliq so‘zlari aroda bor”. N. ta’kidlaganidek, “ma’vizaomuz mag‘izliq so‘zlari” “Dada Qo‘rqut” kitobida duo va istak shaklida o‘nga yaqin ko‘rinishlari aytiladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Дада Қўрқут ҳикоялари. Туркий халқлар ижодидан (таржимон ва нашрга тайёрловчи Очилова З.) – Т., 2010; Ҳайитметов А. Мерос ва ихлос. – Т., 1983.*

B.R.

“QO‘RQUTMA MENI TAMUG‘DIN...” – N.ning “G‘.S.” devoniga kiritilgan ruboiy:

Qo‘rqutma meni tamug‘din, ey zohidi yax,
Jannat manga bo‘lg‘usi debon urma zanax
Kim do‘zax aning yodi bila jannat erur,
Jannat bori sening biladur do‘zax.

Zohid – zuhd tariqi va maslagiga mansub kishi demak. Mashhur ingliz sharqshunosi R.Nikelsonning yozishicha, islomda tasavvufning ilk ko‘rinishi zuhd va vara’ shaklida paydo bo‘lgandir. So‘fiy so‘zi esa dastlab adabiyotlarda ma’lum bir zohidlar guruhiga berilgan nom sifatida qo‘llanilgan. “Hijriy II asrda, – deydi Nikelson, – zuhd harakati erkin va keng tarqalgan bir harakat holiga kelgan. Shu zaylda minglarcha musulmon erkak va ayol, qalblarida oxirat azobi va qiyomat kunining qo‘rquvi chuqurlashgach, alohida tarzda yoki kichik guruhlar holida xotirjamlik bag‘ishlovchi bir diniy hayotni yashash orzusi ila odamlardan uzoqlashdilar”. Shu tariqa zuhd osonlik b-n tasavvufga aylangan edi. Umuman, zuhd talablariga rioya etmasdan, tariqat hayotida ilgarilash mushkul. Zuhd – nafs-u havo, kibr-u riyoning qanotini qayiradigan bir iroda qudrat erur. Halol va haromni farqlash, sabr, qanoat yuksakliklarini egallashda zuhdga tenglashadigan “tarbiyachi”ni tasavvur qilish qiyin. Yahyo bin Muozning aytishicha, “Shu uch xislatga sohib bo‘lmagan umuman zuhdning haqiqatini qo‘lga kiritolmaydi. Birinchisi, faqat Alloh uchun amal, ikkinchisi, moddiy bir tamaga yon bermay so‘zlash, uchinchisi, nafsni moddiyot ila zalil etmasdan aziz bo‘lish”. Junayd Bag‘dodiyga ko‘ra esa “Zuhd qo‘lda yo‘q narsaning ko‘ngilda ham yo‘qligidir”. Lekin zuhdning ma’no-mazmunini hamma ham bir xilda tushunmaganligi bois zohidlar orasida oxirat orzusiga g‘arq bo‘lib, dunyodan butunlay yuz burganlar ham bo‘lgan. Bularning faqat dunyo ishlarigamas, din, ma’rifat taraqqiyotiga ham zarari yetgan. Toat-ibodatdan boshqasini tan olmay, butun fikri-zikri jannatga qaratilgan va odamlarni do‘zax, jahannam azoblari b-n qo‘rqitgan bunday kimsalar Sharq shoirlari tomonidan keskin tanqid qilingan.

Qo‘rqutma meni tamug‘din, ey zohidi yax,
Jannat menga bo‘lg‘usi debon urma zanax.

N.ning bu so‘zlari fe’l-atvori sovuq, jannatparastlik da’vosi ila qanchadan qancha kishilarni bezdirgan ana o‘sha zohidlar hiqidadir.

Kim, do‘zax aning yodi bila jannat erur
Jannat bori sening biladur do‘zax.

Shoir bu baytda Alloh xayoli va diydorini har narsadan muqaddas bilib zohidning aqidasiga qarshi shunday degan: Ey zohid, o‘zing tasavvur etgan jannat-u do‘zax to‘g‘risidagi safsatalaringni yig‘ishtir. Ilohiy jamol tajalli aylaydigan har qanday joy – bu jannat. Sen kabi kimsalar b-n yuzlashadigan jannat – jannat emas, do‘zaxning ayni o‘zidir. Tazodli bu fikrni N. navbatdagi ruboiysida boshqacha so‘z va timsollar orqali ifodalab bergan.

Zohid, senga hur, manga jonona kerak,
Jannat sanga bo‘lsun, manga mayxona kerak.
Mayxona aro soqi-yu paymona kerak,
Paymona necha bo‘lsa to‘la, yona kerak.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011.*

I.H.

QO‘SHIQ – folklor an’analari asosida shakllangan, insonning ichki his-tuyg‘u, kechinmalarini ifodalovchi, ma’lum bir kuyga solib ijro qilinadigan, esda qolishi oson, ixcham, qulay, qofiya va vaznga ega bo‘lgan lirik janr. Q. she’r, qasida, rajaz ma’nosini anglatib, ilk bor Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” asarida “qoshug‘” – tarzida uchraydi. Q. “shlok”, “takshut”, “ir” (yir), “kuch” atamalari bilan qadimda qo‘llanib kelingan. Yusuf Xos Hojibning “Qudatg‘u bilig” asarida quyidagi misralarni uchratish mumkin.

Bu turkcha qo‘shuqlar tuzattim senga
O‘qurda unitma, dua qil menga.

Xorazmiyning “Muhabbatnoma”sida Q. “qo‘sh” shaklida qo‘llangan. Q. mehnat, mavsum-marosim, lirik, tarixiy kabi turlarga bo‘linadi. N. “M.A.” asarida surud, ayolg‘u, lahn, turki so‘zlari Q. ma’nosini bildirishini yozgan: “Yana “qo‘shuq”durkim, org‘ushtak usulida shoye’dur va ba’zi advor kutubida ul usul zikr bo‘lubdur va ul surud a’robning teva surar hudilari vazni bila madidi musammani solimda voqe’ bo‘lur, aning asli bu nav’durkim, bayt:

Vahki, ul oy hasrati, dard-u dog‘i furqati,
Ham erur jonimg‘a o‘t, ham hayotim ofati.

Fo’ilotun fo’ilun fo’ilotun fo’ilun

Ammo bu latif zamonda va sharif davronda bu surudni ramali musammani mahzuf vaznig‘a eltib, musiqiy va advor ilmida muloyim tab’liq benazir yigitlar g‘arib nag‘amot va alhon bila ajab tasarruflar qilib, Sultoni sohibqiron majlisida ayturlarkim, aning muloyimlig‘ va xushoyandalig‘i vasfqa sig‘mas va ta’sir va raboyandalig‘i sifatqa rost kelmas, balki ul Hazratning ixtiro’idur va bu ham ul hazratning Masihoso anfosi natoyijidin istishhodg‘a kelturmak munosibroq erdi, andoqkim, bayt:

Sabzayi xatting savodi la’li xandon ustina,
Xizr go‘yo soya solmish obi hayvon ustina.

Fo’ilotun fo’ilotun fo’ilotun fo’ilun.

Q. “F.Sh.”da “ayolg‘u” atamasi bilan keladi. Xususan, ushbu misralar e’tiborga molikdir:

Ayolg‘u borchag‘a Farhod holi,
Surud ul xastayi noshod holi...
Qulog‘ig‘a yetushti bir hazin un,
Ki, lahn aylar edi bir zori mahzun.

Ad.: *Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011. Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Маҳмуд Кошғарий. Девони луғотит турк. – Т., 2019; Музайяна Алавия. Ўзбек халқ маросим қўшиқлари. – Т., 1974; Қуронов Д., Мамажонова З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2013.*

E.Q.

R

RABBONIY – valiy, uluhiyat asrorig‘a yetishgan zot, murshidi komil sifati. “Rabboniy ani derlarkim, muridlarga oz ilm bila parvarish bergay va tarbiyat qilg‘aykim, to ulug‘ ilmda quvvat topg‘aylar”, – deya N. “N.M.”da ta’rif bergan.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

I.H.

RABOT (ar.) – musofirlar yashaydigan joy, karvonsaroy, musofirxona. Shahar ichkari va chekkasi, shahardan tashqarida, karvon yo‘llarida qurilgan karvonsaroyga o‘xshagan bino. Islom mamlakatlarida dushmanlar hujumini daf etish yoki ularni qarshi olish u-n barpo qilingan chegara hududlaridagi harbiy istehkomlarining umumiy nomi. Savdo yo‘llaridagi karvonsaroylar, shaharlar chekkasidagi turar joylar ham R. deb atalgan. R.lar sekin-asta zoviya va xonaqohlar vazifasini bajara boshladi va so‘fiylar yig‘iladigan joylarga aylangan. N. musofirlar, sayohatchi va ziyoratchilar u-n ko‘plab R.lar qurdirgan. U savdo yo‘llarida qurdirgan yoki ta’mirlatgan R.larining o‘zi 500 dan ortiq degan ma’lumotlar bor. Xondamir “Makorim ul-axloq”da N. qurdirgan R.lar sifatida 54 tasining nomini keltiradi: “Sarixiyobon R.i, To‘quzrabot, Havzak R.i, Darayi Zangi R.i, Chihilduxtaron R.i, Tarnob R.i, Panjdeh R., Qutulmishi Murg‘ob R.i, Marvchoq R.i, Puli Ahmad Mushtoq R.i, Yabg‘u R.i, Zohid R.i, Xoja Duka R.i, Chahorshanba R.i, Bobo Bo‘ri R.i, Darayi Ko‘rqush R.i, Kandagi R.i, Oqrabot, Muzduron R.i, Yonbulog‘ R.i, Dashti Shoraxt R.i, Adraskon R.i, Farmonshayx R.i, Abulvalid R.i, Pariyon R.i, Puli G‘uriyon R.i, Poyobak R.i, Tirpul R.i, Shuturxoni tirpul R.i, Sahroyi bog‘and R.i, Jom R.i, Xargird R.i, Bikrobod R.i (bu ilgari qurilgan bo‘lib, N. tomonidan ta’mirlangan), Sa’dobod R.i, Hazira R.i, Sangbast R.i, Mashhadi muqaddasa R.i, Tepayi Chavq R.i, Dizbod R.i, Kelidar R.i, Runiz R.i, Isfaroyin R.i, Chinoron R.i, Ishq R.i, Dahanayi Taxti Sulaymon R.i, Jurmjo‘y R.i, Ohuvon R.i, Alomat ko‘chasidagi R.i, Puli nigor R.i, Puhra R.i, Dehlar R.i”. Tasavvuf adabiyotida R.dan maqsad – dunyo: uning ham ikki eshigi bo‘lib, xalq biridan kirib, ikkinchisidan chiqadi.

Bog‘lama ko‘nglungni bu manzilg‘a,
nevchunkim, erur.
Bir yangi mehmon yeri har lahza bu eski rabot.

Ad.: *Алишер Навоий. Бадоъе ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик, 3-жилд. – Т., 2011; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва таъбироти ирфоний. – Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.); Фарҳанги забони тожики. 2-жилд. – М., 1969; Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик, 3-жилд. – Т., 2007; Ғиёсиддин Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Т., 2015; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. 2-жилд. – Душанбе, 1989.*

E.O.

RABOTI ISHQ – N. tomonidan bino qilingan rabot. Bo‘zjurd tumani Isfaroyin tegrasidagi qishloq hududida joylashgan.

Ad.: *Давлатшоҳ Самарқандий. Тазкиратуш-шуаро. – Хўжанд, 2015; Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Т., 2015.*

M.A.

RABOTI SANGBAST – Tus hokimi Arslon Jozib tomonidan 999–1030-yy. oralig‘ida Mashhad yaqinida bunyod etilgan gunbaz va minoradan iborat katta va hashamatli rabot bo‘lib, keyinchalik u buzilib ketgan va N. uning yonidan yangi rabot qurgan. “Olam ko‘zi hali bunday imoratni ko‘rmagan”, – deb lutf etgan uning ulug‘vorligi haqida Davlatshoh Samarqandiy. Xondamir ham “Makorim ul-axloq” asarida uni shoir qurdirgan rabotlar sirasida sanab o‘tadi.

Ad.: *Давлатшоҳ Самарқандий. Тазкирату-ш-шуаро. – Хўжанд, 2015; Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Т., 2015.*

E.O.

“RAVZAT US-SALOTIN” – Faxriy Hiraviyning 1540-42-yy.da yozilgan tazkirasi. N. haqida ma’lumot yozgan 80 nafar badiiy ijod b-n shug‘ullangan shoh-u amaldorlar haqida ma’lumot beriladi, ularning ba’zilari hatto sohibdevon bo‘lganlar. Tazkira 7 bobdan iborat bo‘lib, ilk bobda she’r turlari, Bahrom Go‘rning ahvoli, forsiy she’r ibtidosi va bir qator saljuqiy hukmdorlar xususida so‘z boradi. Keyingi boblarda muallif Xuroson, Samarqand, Iroq-u Rum-u Hindiston va boshqa mamlakatlar shohlarining ahvoli va she’rlari haqida ma’lumot beriladi.

Tazkiradagi ma’lumotlar qisqa va lo‘ndaligi b-n ajralib turadi. Ba’zi hukmdorlar ijodidan biror bayt ham keltirilmagan. Faxriy Hiraviy o‘z tazkirasini yaratishda Abdurahmon Jomiyning “Silsilat uz-zahab”, Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro”, N.ning “M.N.” va boshqa tazkiralaridan foydalangan. U shoirta’b shoh-u olimlar ijodi haqida ma’lumot beruvchi ilk tazkiralardan biri hisoblanadi. Bungacha Muhammad Avfiyning “Lubob ul-albob” tazkirasining beshinchi bobi ayni mavzuga bag‘ishlangan edi. Tazkira sodda va tushunarli tilda yozilgan. 1967-y.da Eronda Abdurasul Xayyompur tadqiq etib, nashr qilgan.

Ad.: *Фахрий Ҳиравий. Равзат ус-салотин // Саид Хисомиддин нашри. – Ҳайдарабод, 1968.*

S.G‘., E.O.

“RAVZAT US-SAFO” – to‘liq nomi – “Ravzat us-safo fiy siyratil-anbiyo val-muluk val-xulafo” bo‘lib, N.ning taklifi va iltimosiga ko‘ra, unga bag‘ishlab Sayyid Muhammad ibn Sayyid Xovandshoh ibn Mahmud-Mirxond (v. 902/1498) tomonidan bitilgan. “Ravzat us-safo” fors tilida, 7 jildlik umumiy tarixiy asar bo‘lib, muallif vafotidan so‘ng nevarasi G‘iyosiddin Muhammad Xondamir tomonidan davom ettirilgan. Kitob 7 jild va xotimadan iborat bo‘lib, 1) olamning paydo bo‘lishidan to islom davrigacha; 2) Muhammad (s.a.v.) va to‘rt xalifa; 3) o‘n ikki imom va Umaviylar va Abbosiylar; 4) Abbosiylar zamonidagi Eron va Hindistondagi hukmdorlar; 5) Chingizxon va chingiziylar; 6) Amir Temur va temuriy sultonlar (1469-y.gacha). 7 jild va xotima muallif nevarasi G‘iyosiddin Xondamir qalamiga mansub. Mirxond 1-jildda arabiy va forsiy tarixiy asarlar haqida ma’lumot beradi. “Ravzat us-safo” Markaziy Osiyo, Eron va Hindiston tarixi u-n asosiy manba hisoblanadi. Bu asarning 1-jild 2-yarmini Muhammad Rahimxonning topshirig‘i b-n Shermuhammad ibn amir Avazbek o‘g‘li-Munis 1821-y.da tarjima qiladi va o‘sha jilddagi ba’zi ma’lumotlarni to‘ldiradi. N. bu asar haqida: “...Bu faqir iltimos bila avvali ofarinishdin bu kungacha tarixi jome’yi biturkim, nisfig‘a etibdur. Inshaalloh, tugaturiga muvaffaq bo‘lg‘aykim, tavorix arosida andin mufidroq tarix bo‘lmag‘usidur...” deb yozgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Али Акбар Деҳхудо. Луғатнома. 14-жилд; ЭСТ. – Душанбе. 1987.*

E.O.

RAVON – (f.) 1. Yuruvchi, ketuvchi, o‘tuvchi; 2. Oquvchi; 3. Tez, tezdan; 4. Jon, ruh, hayot. Bu so‘z N.ning nasriy asarlarida qo‘llanilgan jumlalar tarkibida farqli mazmunlar kasb etgan. “..nogoh bo‘yin raglaridin qon ravon bo‘ldi (qon oqa boshladi)”, “...aning iligin tutub ravon bo‘ldi (yura boshladi)”. Mavlono Sulaymoniy ...badihani

ravon (mahorat b-n) aytur erdi”. “Mavlono Majnun... “bozguna” xatini andoq ravon (silliq, bir tekisda) va sof bitirkim, mahalli taajjubdur”. Ayrim iboraviy birikmalar tarkibida kelgan “ravon” so‘zi turli ma’nolarni ifodalaydi: ashki ravon (oquvchi ko‘z yoshi), ganji ravon, siymi ravon (harakatdagi xazina, ba’zan Qorun xazinasi ham nazarda tutilgan), la’li ravon (suyuq la’l (may), majoziy oqqan qon), sarvi ravon, sarvi xiromon (go‘zal yurishli nozanin, sevgili), ravoni puranvor (nurli, pokiza ruh), ravoni hashmat (ulug‘lik, dabdaba), ravon kirguzmoq (jonlantirmoq), Ravon topmoq (jon topmoq, tirilmoq), ravonoso (jon kabi, jonga o‘xshash), ravonbaxsh (jon bag‘ishlovchi; jonlantiruvchi) v.h. Mazkur iboralar esa N. g‘azallari qatida yorqin ko‘zga tashlanadi. M-n:

1. Jon, ruh, tiriklik, hayot ma’nosida:

Ey falak, jilvang uchun aylay ravonimni fido,
Jilvagarlik olmag‘il sarvi ravonimdin mening.

2. Qimmatli, baholi:

Ey ko‘ngul, ko‘rsang labu qaddin, kerak shukronag‘a
Javhari joning bila naqdi ravon qilsang fido.

3. Darhol, tezda:

Jon tilar bo‘lsa, ravon beray ko‘ngulkim, bu mato’,
Arzimas tortar uchun ul hur paykar intizor.

4. Bog‘liq, qator:

Ravon yuz tog‘-u birga bo‘lmay orom,
Vale tog‘eki, bo‘lg‘ay mohi andom

N. “M.N.”da samarqandlik ustozi Xoja Fazlulloh Abulaysiyning jon va ravon so‘zlarini mahorat b-n qo‘llagan baytini keltiradi.

Qadi chun sarvi tu jon ast maro, balki ravon,
So‘yam, ey sarv, ravon shavki, fido sozam jon.

Tarj.: Sening sarv kabi qadding men u-n jondir, balki ravondir, ey sarv, men tomonga ravon bo‘l, senga jonimni fido qilay. Birinchi baytdagi “ravon” tiriklik, hayot manbayi ma’nosida bo‘lsa, ikkinchi baytdagisi, yurmoq, harakat qilmoq ma’nosida qo‘llangan.

Ad.: *Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик, 2-жилд. – Т., 1983.*

S.R.

RAVOSIY – “M.N.”da keltirilishicha, haqoyiq va maorifdan dilkash va ta’sirchan suhbatlar qilgan. N. ham o‘zining uning sharif suhbatiga musharraf bo‘lganini va suhbat o‘ziga xush kelgani haqida yozadi.

Badaxshon shohi shayxga murid bo‘lib, uning huzurida Muhyiddin ibn Arabiyning “Fusus ul-hikam” (“Hikmat toshlari”) asaridan saboq olgan.

She’rga mayl ko‘rgizgan. Jumladan, quyidagi matla’ uning qalamiga mansub:

Zihi az orazat chashmi maro nur,
Hamesha az jamolat chashmi bad-dur.

Tarj.: Ey, sening go‘zal yuzlaring mening ko‘zlarimga nur bag‘ishlaydi. Yomon ko‘z hamisha jamolingdan uzoqda bo‘lsin.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

E.O.

RAVSHANAK – “S.I.” dostoni qahramonlaridan biri. Doroning qizi. Mag‘lub Doroning vasiyatiga ko‘ra Iskandar R.ga uylanadi va nasabi oliy bo‘lganligi u-n hamisha uning hurmatini saqlaydi. Kashmir shohining go‘zal qizi Mehrnozning o‘zini undan rashk qilishiga javoban Iskandar shunday deydi:

Ki, vojibdurur ehtiromi aning,
Nedinkim, biyikdur maqomi aning.
Erur Bahmaniy tojning gavhari,
Yana Kayqubodiy sipehr axtari.

Bu obraz Mehrnoz b-n qiyosda ochiladi: bu orqali N. insonning tengligi, nasl-u nasabning ahamiyatsiz ekani, insonning fazilatlari muhim ekanligi b-n bog‘liq g‘oyani ilgari suradi. Sof, samimiy muhabbatni ulug‘laydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Қаюмов А. Асарлар. 10 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2008.*

A.A., M.A.

RADD UL-MATLA’ (ar. – matla’ning rad etilishi, ya’ni qaytarilishi, takrorlanishi) – g‘azal (yoki qasida)ni boshlangan misra b-n yakunlashdan iborat she’riy san’at. Bu san’at garchi R.M. deb atalsa-da, aslida matla’ning yarmi – ilk misrasi qaytariladi – maqta’ning oxirgi misrasi bo‘lib keladi. O‘quvchi diqqatini asarda ifodalangan asosiy nuqtaga takror tortishdan iborat mazkur san’at she’r kompozitsiyasida muhim o‘rin tutadi. N. lirikasida mahorat b-n qo‘llangan she’riy san’at.

Bu san’at, asosan, keyingi asrlarda rivojlanganidan ilmi bade’ga bag‘ishlangan ko‘plab mashhur asarlarda u tilga olinmagan. O‘zbek she’riyatiga u fors-tojik adabiyotidan kirib kelgan. N.gacha bo‘lgan o‘zbek she’riyatida u ,deyarli, uchramaydi. Shayx Ahmad Taroziy “Funun ul-balog‘a”da bu san’atga misol sifatida o‘zining bir o‘zbekcha g‘azalini keltirib qo‘ya qoladi. Uning ko‘rinishlariga esa Hofiz Sheroziy, Kamol Xo‘jandiy, Hasan Dehlaviylarning forsiy g‘azallarini misol qilib keltiradi. Shuning u-n ham Y.Is’hoqov: “Bu san’atning o‘zbek adabiyotidagi shakllanishi va taraqqiyoti bevosita N. ijodi b-n bog‘langan, – deb yozadi. Chunki ulug‘ shoir g‘azaliyotida bu usul tasodifiy hodisa bo‘lmasdan, ma’lum sistema holiga kirgan. Umuman, N. ijodida bu san’at shoir fikr va tuyg‘ularining xilma-xil aspektda chuqur ifodalanishi u-n xizmat qilgan faol poetik vositalardan biriga aylangan”. Shoirning o‘nlab g‘azallarida bu san’atning betakror namunalarini ko‘ramiz. M-n:

Kechti umrum naqdi g‘aflat birla nodonlig‘da hayf,
Qolg‘ani sarf o‘ldi anduh-u pushaymonlig‘da hayf...

Ey Navoiy, voqif erman xalqdin, bori mening
Kechti umrum naqdi g‘aflat birla nodonlig‘da hayf.

Ko‘rinib turganidek, behuda o‘tgan umrdan yozg‘irish g‘azalning asosiy mavzusi, hasrat-nadomat bosh g‘oyasi hisoblanadi. Shuning u-n ham bunga urg‘u berilgan misra g‘azal oxirida takrorlanib, o‘quvchi fikrini bir nuqtaga jamlaydi.

N. g‘azallarida matla’dagi birinchi misraning ba’zida ikkinchi bayt tarkibida takrorlanib kelishini nazarda tutib, Y.Is’hoqov bu san’atning o‘zbek adabiyotidagi namunalari ayrim o‘ziga xos tomonlarga ega deydi va unga shunday ta’rif beradi: “Radd ul-matla’ g‘azal matla’idagi (yoki qasida boshidagi) bir misra g‘azalning (qasidaning ham) keyingi baytlaridan birida yoki g‘azal maqta’i (qasidaning esa oxirgi bayti) tarkibida muayyan maqsad bilan takrorlanishidan iborat”.

N.ning quyidagi mashhur g‘azalida matla’ning birinchi misrasi ikkinchi baytning ikkinchi misrasida takrorlangan:

Otashin gul bargidan xil’atki jononimdadur,
Xil’at ermas, ul bir o‘tdurkim, mening jonimdadur.

Otashin la’lidururkim, anda muzmar bo‘ldi jon,
Otashin gul bargidin xil’atki jononimdadur.

Lekin bu hol shoir ijodida ko‘p uchramaydi.

Shayx Ahmad Taroziy qofiya takrorini ham R.M. san’atiga kiritadi. Lekin keyinchalik u alohida san’at sifatida ko‘rsatiladigan bo‘ldi.

“Radd ul-matla’ san’atining ma’naviy nafosat nuqtai nazaridan va shakliy jihatdan talay fazilatlari bor, – deb yozadi V.Rahmonov. – Chunonchi:

− birinchidan, takrorlanuvchi misra she’rda qoliplovchi vazifasini bajaradi va mazmunni bir muhim fikr tizginida tutish imkonini beradi;

– ikkinchidan, shaklan olib qaraganda, misra takrori o‘ziga xos bir she’riy halqa yaratadi. Qaytariluvchi misra go‘yo marjonning bir shakl va tusdagi donalarini o‘zida tizuvchi shodaga o‘xshaydi.

Bosh va oxirdagi bir xil ohang va fikr takrori kitobxonning diqqatini fikr o‘zagiga jalb etishga ko‘maklashadi”. Shuning u-n ham Y.Is’hoqov “bu she’riy san’atni ham lafziy, ham ma’naviy san’at xususiyatlarini o‘zida mujassam etgan mushtarak san’at doirasiga kiritish o‘rinli bo‘ladi”, – deb yozadi.

Ad.: *Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға . “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2002, № 6.; Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т., 2006; Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Т., 2001.*

E.O.

RADD UL-QOFIYA (ar. – qofiyaning qaytarilishi, takror kelishi) – lafziy san’atlardan biri. N. lirikasida qo‘llangan badiiy san’at. Shayx Ahmad Taroziy uni radd ul-matla’ tarkibiga qo‘shadi. Lekin keyinchalik ular alohida-alohida san’atlarga ajratildi. Eron olimi Doyi Javod R.Q.ni g‘azal yoki qasida ilk misrasidagi qofiyaning ikkinchi bayt oxirida takrorlanishi deb ta’rif beradi. Badiiy san’atlarning nuktadon tadqiqotchisi Y.Is’hoqov o‘zbek g‘azalchiligida bu san’atning rang-barang ko‘rinishlari uchrashi haqida ma’lumot berib, 4 xilini ko‘rsatib o‘tadi va N. ijodidan quyidagicha misol keltiradi:

Ey nasimi subh, ahvolim diloromimg‘a ayt,
Zulfi sunbul, yuzi gul, sarvi gulandomimg‘a ayt...

Yo‘q, Navoiy bedil oromi g‘am ichra, ey rafiq,
Holini zinhorkim, ko‘rsang diloromimg‘a ayt.

Bu hol nisbatan ko‘p uchraydi.

Shundan kelib chiqib, u “Radd ul-qofiya qasida yoxud g‘azal matla’sidagi qofiyalardan biri yoki har ikkalasining bo‘lak baytlarda, shu jumladan, maqta’da ham muayyan poetik maqsadda takrorlanishidir”, – deb yozadi.

Olimning yozishicha, omonim so‘zlarning takrorlanishi R.Q.ni vujudga keltirmaydi.

Ad.: *Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Т., 2001; Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т., 2006; Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға. Ўзбек тили ва адабиёти, 2002, № 6.; Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2010.*

E.O.

RADIF (ar. – mingashgan; hamroh, yo‘ldosh) – she’rda qofiyadan keyin takrorlanib keluvchi so‘z, so‘z birikmasi yoki gap. N. 1,2,3,4,5 radiflar qo‘llagan. Sharq she’rshunoslari R.ni goh qofiya ilmiga, goh badiiy san’atlarga qo‘shib o‘rganganlar. “Radifning qofiyaga bog‘liq joyi shundaki, birinchidan, u hamisha qofiya b-n yonma-yon keladi, ikkinchidan, radif ham qofiya kabi ohangdoshlikka xizmat qilgani u-n unga yaqin turadi” (S.Olimov). Bugina emas, arab mumtoz adabiyotshunosligida qofiya unsurlaridagi raviydan so‘ng keluvchi takrorlangan harflar ham R. sanalgan. Lekin R. she’riy takrorning ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, o‘zining badiiy vazifasiga ko‘ra ko‘proq san’at turi hisoblanadi.

R. faqat shakl hodisasi bo‘lib qolmay, u ma’noga ham daxldor: she’rning ohangdoshligini oshirishdan tashqari, ma’noni kuchaytiradi. Chunki shoir she’rda qaysi fikrga urg‘u bermoqchi, nimaga o‘quvchi e’tiborini qaratmoqchi bo‘lsa, o‘sha so‘zni R.ga chiqaradi. Binobarin, fikrning asosiy yuki shu badiiy unsur zimmasiga tushadi. R. she’rni boshidan-oxirigacha yagona mavzu, bir g‘oya, mushtarak ohang atrofida birlashtiradi, o‘quvchi e’tiborini bir nuqtaga jamlaydi. G‘azal yoki qasidadagi turli ma’nolarini ifodalab kelgan baytlarini o‘zaro qovushtirib, bir ipga tizadi. Shuning u-n shoirlar R. tanlashda so‘zning salmog‘i, jarangdorligi, nafisligi, ta’sirchanligi, she’r g‘oya va mazmunini ifodalash va o‘quvchi diqqatini jalb qilish imkoniyatini hisobga olganlar.

Albatta, R.siz she’rlar ham kam emas. Lekin R. she’rga alohida ohangdorlik jarangdorlik va ta’sirchanlik bag‘ishlagan.

Masnaviyda R. qo‘llash imkoniyati erkin bo‘lib, u bir bayt doirasidagina amal qiladi. Lekin ba’zi adabiyotshunoslar R. faqat she’riy janrlargagina xos bo‘lib, masnaviydagi qofiyadan keyin takrorlanib keluvchi so‘zlarni R. deb bo‘lmasligini ham ta’kidlaydilar.

R. she’rlar muraddaf deyiladi.

Takrorga asoslangan va hojib b-n vazifadoshligi jihatidan V.Rahmonov R.ni tashqi takror, hojibni ichki takror deb ham ataydi. Chunki hojib qofiyadan oldin, R. qofiyadan keyin takrorlanadi.

R. N. ijodida asosiy o‘rin tutadi. Shoir g‘azal, qasida, ruboiylarining aksariyat qismi R.lidir. Mumtoz she’riyatda R.ga katta e’tibor berilganligi, yangi va ohorli R. badiiy kashfiyot sifatida baholanganligi ma’lum. Shuning u-n N. “M.N.”da u yoki bu shoirning mahorati xususida so‘z yuritganda u qo‘llagan R.larning qanchalik go‘zal va ta’sirchanligiga ham e’tibor qaratadi. Jumladan, Husayn Boyqaroning safar chog‘ida aytgan “Yaxshi qol” R.li she’rini maqtaydi. Uning o‘zi ham yangi, ohorli, jarangdor va ta’sirchan R.larni topib qo‘llashga intilgan. Bugina emas. U bir R.da bir necha g‘azal yozib, uning ma’no doirasini kengaytirgan, o‘ziga xos variantlarini yaratgan. Bir so‘zdan iborat R.:

Ko‘nglum o‘rtansun agar g‘ayringg‘a
parvo aylasa,
Har ko‘ngul hamkim sening shavqungni
paydo aylasa.

Ikki so‘zdan iborat R.:

Ko‘rgali husnungni zor-u mubtalo
bo‘ldum sanga,
Ne balolig‘ kun edikim, oshno bo‘ldum sanga.

Gapdan iborat R.:

Jondin seni ko‘p sevarmen, ey umri aziz,
Sondin seni ko‘p sevarmen, ey umri aziz.
Har neniki, sevmak ondin ortuq bo‘lmas,
Ondin seni ko‘p sevarmen, ey umri aziz.

Bu ruboiy faqat qofiya va R.dan iborat. Bunday ruboiy yozish an’anasi Sharq she’riyatida mavjud. Kamol Xo‘jandiy va Bobur ijodida ham shunday ruboiylarni ko‘ramiz.

N. R.lari, asosan, bir va ikki so‘zdan iborat. U R.ning she’rni kuchaytirishdagi imkoniyatlaridan mahorat b-n foydalangan.

Ad.: *Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Л., 1972; Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Т., 1983; Саломов Ғ., Комилов Н. Дўстлик кўприклари. – Т., 1979; Олим С. Маснавий таржимасида радиф // Таржима санъати (Мақолалар тўплами). 6-китоб. – Т., 1980; Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т., 2006; Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2010.*

E.O.

“RADOYIF UL-ASH’OR” – Faxriy Hiraviy tomonidan 1523-y.da tartib berilgan she’rlar to‘plami. Ma’lumki, she’riyat muxlislari yoki shoir-u adiblar tomonidan tuziladigan bunday to‘plamlarda turli davrlarda yashab ijod etgan shoirlarning arab alifbosi bo‘yicha bir xil radif b-n tugaydigan she’rlari jamlanadi. Faxriy to‘plami ham XII–XVI asrlarda yashab o‘tgan 254 shoir g‘azallarini o‘z ichiga oladi. Jumladan, Jomiyning 92, Hofizning 65, Xusrav Dehlaviyning 58, Darvesh Dehakiyning 30, Shayxim Suhayliyning 24, Sayfiyning 16, Foniy (Navoiy)ning 15 g‘azali va boshqalar kiritilgan.

Ad.: *Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 3. – Душанбе, 2004.*

E.O.

RAJABOVA Burobiya Tangirovna (1967, Tojikiston Respublikasi, So‘g‘d – n. shunos, f.f.n. (1996), “Do‘stlik” ordeni sohibasi (2021). Tojikiston Respublikasi Xo‘jand davlat pedagogika instituti o‘zbek filologiyasi fakultetini imtiyozli diplom b-n (1986–1991) tamomlagan. Sharq mumtoz adabiyoti namoyandalari ijodiga qiziqishi, adabiyotshunoslik sirlarini o‘rganishga bo‘lgan kuchli ishtiyoqi sababli 1991-y.da O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot institutining Navoiy bo‘limiga ishga qabul qilingan. 1992-1995-yy.da mazkur institut aspiranturasida o‘qigan. 1996-y. da “O‘zbek klassik she’riyatida tamsil san’ati” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Mazkur monografik tadqiqot lirikada muhim sanalgan tamsil badiiy san’atining o‘ziga xos xususiyatlari, jumladan, tamsilning poetik matn mazmunini ochib berishdagi rolini to‘laqonli ko‘rsatib bergan. U 2001-2004-yy.da O‘zR FA Til va adabiyot institutining doktoranti bo‘lgan. 1991-y.dan mazkur institutda kichik ilmiy xodim, katta ilmiy xodim, yetakchi ilmiy xodim sifatida ishlab keladi. R.B.T. ilmiy faoliyatining asosiy yo‘nalishini o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi, xususan, N. ijodini o‘rganish tashkil etadi. Buyuk mutafakkir N.ning hayoti va ijodiga bag‘ishlangan 400 dan ortiq ilmiy, ilmiy-ommabop maqolalari respublikamiz, 50 ga yaqin maqolasi esa xorij (AQSH, Rossiya, Turkiya, Hindiston, Ozarbayjon, Qozog‘iston, Tojikiston, Afg‘oniston, Litva, Makedoniya) matbuotida chop qilingan. “Tamsil” (2002), “Qalb va qadriyat” (2002), “Onalar bilan suhbat” (2014), “Olam ma’murlig‘i alardin...” (2014), “O‘zum sori boqma, so‘zum sori boq” (2015), “Annelerle sohbet” (2018, Riga, turk tilida), “Mushtarak adabiy hodisalar” (2019), “Navoiy ijodida Amir Temur siymosi” (2019), “Boqiy vasiyatnomalar” (2022), “Temuriylar Renessansi va “Boburnoma” (2022), “So‘zlar bilan so‘zlashuv” (2023) kitoblari nashr etilgan. Mazkur kitoblar R.B.T.ning adabiyotshunosligimiz, xususan, n.shunosligimiz rivojidagi o‘ziga xos hissasini ko‘rsatib turibdi. Uning chuqur tarixiy, huquqiy bilimlariga egaligi adabiyotga oid mavzularni ham chuqur tahlil va talqin qilishda imtiyoz hamda imkoniyat yaratgan. Jumladan, “Bobur ensiklopediyasi” hamda to‘rt jildlik “Alisher Navoiy ensiklopediyasi”ni nashrga tayyorlashda qomusiy maqolalar yozib, mualliflar safidan o‘rin olgan.

Ad.: *Ражабова Б. Ўзум сори боқма, сўзум сори боқ. – Т., 2015; Ражабова Б. Муштарак адабий ҳодисалар. – Т., 2019; Ражабова Б. Навоий ижодида Амир Темур сиймоси. – Т., 2019; Ражабова Б. Боқий васиятномалар. – Т., 2022.*

M.A.

RAJAZ (ar. – tezlik, iztirob) – mustaf’ilun (3-hijo qisqa, qolgan hijolar cho‘ziq – – – V –) aslining takroridan hosil bo‘lgan bahr (mustaf’ilun mustaf’ilun mustaf’ilun mustaf’ilun – – – V – / – – V – / – – V – / – – V –). She’riyatimizda musammani solim shakli keng tarqalgan.

N. “M.A.”da R.ning 13 vaznini ko‘rsatib, ularga misollar keltiradi. Bobur esa “Muxtasar” asarida R. bahrining 63 vaznni o‘z ichiga olishini aytib, ulardan 32 tasi musta’mal, 31 tasi muxtara’, shundan 10 vazn mustama’li matbu’ ekanini ta’kidlaydi.

O‘zbek she’riyatida R. bahrining rajazi musammani muzall, rajazi musammani matviyi maxbun, rajazi musammani matviyi maxbuni muzol kabi musamman shaklidangina foydalanilgan. R. bahri dastlab “Qisasi Rabg‘uziy”da uchraydi. Atoiy, Sakkokiy, Gadoiy va Lutfiylar ham R. da ijod qilganlar. N. uning 3 vaznida 25 g‘azal yaratgan. R. bahrida yozilgan g‘azal va muxammaslar “Shashmaqom”ning “Iroq” kuyi taronalari, shuningdek, “Bayot IV”, “Dugoh”, “Husayn V” kabi qator kuylarga mos tushadi.

N. R.i musammani solim vaznida 16 ta g‘azal yozgan. M-n:

Bir kun meni ul qotili majnunshior o‘lturgusi,
Usruk chiqib, javlon qilib, devonavor o‘lturgusi.

Rajazi musammani matviyi maxbun vaznida ham u 8 ta g‘azal yozgan. M-n:

Suvda yuzungmu aksi yo chashma aro parimidur,
Chashmayi mehr ichinda yo lam’ayi mushtarimidur.

Yana bir g‘azali esa rajazi musammani matviyda.

Ad.: *Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. ТАТ. 10-жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Бобур. Мухтасар. – Т., 1971; Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т., 1998; Ҳожиаҳмедов А. Навоий арузи нафосати. – Т., 2006.*

E.O.

RAJO – Allohdan umidvorlik. So‘fiyning diydor va jamol tomoshasiga umid bog‘lashi. Tariqat muridining boshlang‘ich hollaridan biridir. Solikni ikki qanotli qushga o‘xshatgan Najmiddin Kubro hazratlari shunday deydi: “Polapon qanotlari xavf-rajo, o‘rta yoshlining qanotlari qabz-bast, keksaning qanotlari uns va haybat erur... Bu ikki qanot ila parvoz eta olish uchun ular zot va harakatlarida muvofiq bo‘lmog‘i kerak. Qanotlarning zot yoki sifatlarida farq bo‘lsa, Sayyorni ham, bu qanot ila yuksalganni ham muvozanatsizlikka duchor qilar”. Ko‘rinib turibdiki, muridda ikkita hol yonma-yon yashaydi. Alloh Jamol sifati b-n tajalli etganda murid rajo holida, jalol sifati b-n tajalli etganda esa xavf (qo‘rquv) holida bo‘ladi. “N.J.”da rajo, ya’ni umid faqat Alloh taologa bo‘lishi lozimligi aytiladi. Shunda solik to‘g‘ri yo‘lda bo‘lib, vuslatdan umid qilsa bo‘ladi:

Haqdin emin bo‘lubki jon topqaysen,
G‘ayridin xavfi begaron topqaysen,
Andinki rajoyi jovidon topqaysen,
Xavf aylaki, g‘ayridin amon topqaysen.

Solikning Allohning lutf-u marhamatidan umidvorligi R., uning azobi va g‘azabiga duchor bo‘lishidan qo‘rquvi xavfga sabab bo‘ladi. Ammo ta’kidlash joizki, rajo va xavf muridning ilk maqomlaridandir. Xavf va rajoning tamali ilm ekanligini ta’kidlagan Shayx Najmiddin Kubro shunday deydi: “Bir kimsaning xavf tomoni rajo tomonidan ustunlik qilsa, qora qish kabi sovuq fikrlarga asir bo‘ladi. Aksincha, rajo xavfga nisbatan yuqori bo‘lsa, mustaqimdan yumalana-yumalana aldov jahannamiga tushadi. Odil Haqning sifati, azobi-yu shiddati, lutfi behisob (G‘afur, 40:3)”. “L.T.” dostonida bu hollar aniq tasvirlanadi. Qushlarning parvoziga sabab bo‘lgan hol va maqomlar badiiy ifodalanadi:

Sayr aro qat’i biyobon aylagan,
Tayyi maslak ulcha imkon aylagan.

Yo‘l rijo-yu xavfini bilgan tamom,
Xavfi islohida qilg‘on ihtimom.

Umuman olganda, sayri suluk davomida murid R. holini tark etmaydi. Zero, Allohdan hech qachon umid kesilmaydi. N. asarlarida R. faqat tasavvufiy istiloh sifatida emas, umid, orzu ma’nosida ham keladi:

Dushman rijo-yu xavfi desangkim, fan o‘lmag‘ay,
Andoq tirilki, kimsa sanga dushman o‘lmag‘ay.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Нажмиддин Кубро. Тасаввуфий ҳаёт. – Т., 2004.*

Z.R.

RAZ QIZI − N. g‘azallarida ko‘p uchraydigan timsollardan. Raz − tok. R.Q. − tok qizi, ya’ni uzum. Uzum esa may manbayi. Ma’lum bo‘ladiki, raz qizi obrazli yo‘sinda may ramzi bo‘lib keladi. Shuning u-n ham shoir g‘azallarida bu timsol hayot g‘am-tashvishlaridan xalos etish vositasi sifatida gavdalanadi. Bunda ram-

ziy obraz sifatida u ko‘pincha Sharq mumtoz she’riyatidagi mashhur obraz − dahr zoli (dunyo kampiri − ko‘hna dunyo)ga qarama-qarshi qo‘yiladi:

Raz qizidin, soqiyo, bir dam meni shod aylakim,
Charx zoli g‘ussasi ko‘nglumni g‘amgin aylamish.

R.Q. – yoshlik, navqironlik, navnihollik, charx (falak), dunyo zoli esa qarilik va ko‘pni ko‘rganligi jihatidan sehr-u jodu, makr-u firib, hiyla-nayrang sohibi sifatida tasvirlanadi:

Falak zoli g‘am-u dardin chekardin o‘ldum,
ey soqiy,
Keturgin raz qizin botkim, tilar bir
navjuvon ko‘nglum.

Yoki:

Ko‘ngulni raz qizining suhbati bila sof et,
Ki, dahr zoli ajab hiylasoz-u purfandur.

Maz.: Ko‘ngilni raz qizining suhbati b-n pok aylaki, dunyo degan jodugar o‘ta hiylagar va makkordir.

Mayni tamsil etib kelganligidan raz qizi b-n bog‘liq baytlar, odatda, tasavvufiy ma’noda bo‘ladi. Jumladan, yuqoridagi baytning tasavvufiy ma’nosi esa quyidagicha: “Ko‘ngil zanglarini ma’rifat ziyosi b-n arit, chunki dunyo degan jodugar makr-u hiylada tengsiz bo‘lib, u ko‘nglingni o‘zining iflos sevgisi b-n band etadi va maqsad yo‘lidan chalg‘itadi – dunyo g‘uborlari b-n bulg‘angan ko‘ngil Haqqa yetolmaydi”.

Bu yerda haqsevarlikka da’vat va dunyoparastlikni qoralash mavjud. Boshqa bir baytida esa bu dunyoda ko‘hna charxning makr-u hiylasini ko‘rmayin desang, tok qizining labidan labingni olma, deydi:

Jahonda raz qizining la’lidin og‘iz olma,
Desangki, ko‘rmagasen zoli charx makr-u fanin.

Haq yo‘liga kirgan, ilohiy ma’rifatdan boxabar bo‘lgan kishining falakning evrilishlari-yu zamonning aylanishlariga, dunyo o‘yinlari-yu hayot qing‘irliklariga parvosi bo‘lmaydi. Shuning u-n ham shoir falak makkorasi o‘yinlaridan najot topay desang, ilohiy ma’rifatni egallashdan to‘xtama deydi.

Ma’lumki, so‘fiyona istilohga ko‘ra, may – ilohiy ishq va irfon ramzi, mayxona − ilohiy may, ya’ni ma’rifat ulashiladigan joy. Mayxona piri ana shu mayni ulashadigan kishi, soqiy. Shuning u-n ham shoir yozadi:

Hamisha mug‘bachavu raz qizi fidosi bo‘lay –
Ki, dayr pirig‘a arzir bu nav’ o‘g‘il bila qiz.

Mug‘bacha – mug‘ bola tasavvuf she’riyatida ko‘pincha soqiy timsoli bo‘lib kelishi ma’lum. Binobarin, shoir aytmoqchiki: “Hamisha soqiy va mayning fidosi bo‘layki, komil pirga ana shunday o‘g‘il va qiz munosibdir”.

Bu yerda mazkur timsollar jinslantirilib, soqiy – o‘g‘il, may – qiz bola ma’nosida istifoda etilmoqda.

Dayr piri esa mayxona boshlig‘i. Endi baytning tasavvufiy mazmuni quyidagicha tus oladi: “Ma’naviy rahnamoga ma’rifatdan so‘z aytish va uni tarqatish yarashadi”. Yoki: “Ma’naviy rahbarga ma’rifatli muridlarni tarbiyalab yetishtirish va ularni tariqat yo‘liga boshlash u-n xalq ichiga yuborish munosib”. O‘z-o‘zidan, bunda so‘z – raz qiziga, uni tarqatish – mug‘bachaga daxldor.

Yoki:

Ich, Navoiyki, bu tun raz qizini bermak emish,
Piri mayxona seni o‘ziga farzand qilib.

Maz.: Ey Navoiy, bu kecha mayxona piri seni o‘ziga farzand qilib, tok qizini olib bermoqchi.

Lekin shoirning mayxonada mayxona boshlig‘iga o‘g‘il bo‘lib, tok qiziga uylanishi haqidagi ushbu fikr dunyoviy talqinda ro‘y bermaydi. Aytib o‘tilganidek, R.Q. – may, may – ilohiy muhabbat va ma’rifat, mayxona – xonaqoh, pirning

huzuri, piri mayxona – ma'naviy rahbar ekanligini ko'zda tutsak, bu orqali shoir: "Ey Navoiy, bu kecha ilohiy ilmlar, g'ayb sirlari koni bo'lgan komil pir senga ma'rifatdan saboq bermoqchi emish, sen uning purma'no so'zlarini jon qulog'ing b-n tinglab, ko'nglingga jo qil". Yoki: "Bu kecha piri g'aybdon senga ilohiy sirlar xazinasini ochmoqchi emish, sen uni ko'ngling mulkiga jo ayla". Yana: "Bu tun Haq sirlaridan voqif komil pir ilohiy ma'rifat mulki kalitini sening qo'lingga tutqazmoqchi emish, sen uni sidq-u ixlos b-n qabul qil" kabi fikrlarni ilgari surgani ma'lum bo'ladi.

Ad.: *Очилов Э. Бир ҳовуч дур. – Т., 2011; Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. 1-жилд. – Душанбе, 1987; Асадов М. Соқийнома: тарих ва поэтика. – Т., 2020.*

E.O., M.A.

RAZZOQ Hamroyev (1910–1981) – aktyor, rejissyor, pedagog. O'zbekiston xalq artisti. "Tohir va Zuhra"dagi Nozim, "Rustam"dagi Rustam obrazi R.H.ning ilk roli hisoblanadi. R.H. teatr va kinoda N. b-n bog'liq repertuarlarda turli rollarni ijro etgan. Xurshidning N. dostonlari asosida yaratilgan "Farhod va Shirin" musiqali dramasida Xusrav, Hoqon, "Navoiy" (Oybek) dramasida N. obrazlarini mahorat b-n gavdalantirgan. R.H. o'zbek kinosida ham 1948-y.da "Alisher Navoiy" badiiy filmida N. rolini ijro etgan. Bu obraz san'atkor ijodida alohida o'rin tutadi. Aktyor N.ni mutafakkir shoir, xalqparvar davlat arbobi, sodiq do'st sifatida yorqin gavdalantirdi, uning ichki kechinmalarini tomoshabinga mohirona yetkazdi. Bu film nafaqat o'zbek, balki jahon kino tarixida muhim iz qoldirdi. R.H. ijrosidagi barcha obrazlar betakror, ammo rejissyor K.Yormatov tomonidan suratga olingan mazkur film aktyor rollarining gultojidir. U aktyorga jahon miqyosida shuhrat qozonishiga, iste'dodining yangi bir qirrasini ko'rsatishga asos bo'ldi. "Alisher Navoiy" filmi jahondagi juda ko'p mamlakatlarda namoyish etildi. Millionlarcha muxlislarning mehrini qozongan mazkur film va N. rolining benazir ijrochisi davlat mukofotiga o'sha yillarning o'zidayoq sazovor bo'lishi bejiz emasdi. R.H. o'zi sevib ijro etgan siymosi N. kabi xalq orasida mashhur bo'ldi va ushbu roli b-n aloqador ibratli voqealar ro'y berganligini aytishadi. O'zbekiston xalq artisti Zikir Muhammadjonov guvohi bo'lgan voqeani shunday xotirlaydi: "Filmni suratga olish paytida oddiy kishilar R.H.ni N. kiyimida va grimda ko'rib, buyuk shoir deb qabul qilishib, hurmat-izzat ko'rsatishgan. Hattoki, bola tug'ilsa, ismini Alisher qo'yishgan. Bir kuni bir ayol bolasini bag'riga bosib, R.H.ga iltijo qiladi: "Bolam ko'pdan beri bemor; qo'lingizga olib nafasingizdan bahramand etsangiz, ajab emas, tuzalib ketsa..." R.H. jon-dili b-n bolani bag'riga bosib, so'ng onasiga qaytarib bergan. Film tayyor bo'lgach, haligi ona bolasini yetaklab kelib, "Mana, o'sha siz dam solgan bola, tuzalib ketdi", – deb minnatdorchilik bildirgan". Ma'lumki, o'z davrida N. rolini R.H. va Olim Xo'jayevlar mahorat b-n ijro etishgan. Ulardagi shu qadar jonli ijroning sababi, albatta, shoir hayoti va ijodiyoti barobarida buyuk shaxsiyati b-n ham tanish bo'lishganidir. Shuning u-n ularning axloqi ham o'rnak bo'lgan. Teatrshunoslar orasida ikki darg'a o'rtasida kechgan voqea ko'p eslanadi: "Bir kuni R.H. teatrga kirib kelganida, oldidan Olim Xo'jayev chiqadi. Shunda u kishi tiz cho'kib, Olim akaning qo'llaridan o'pib, ko'zlariga surtgan. Olim aka esa: "Yo'q-yo'q, turing-turing", – deb R.H.ni ikki tirsagidan ko'tarib turg'izgan. So'ng o'zi tiz cho'kib, R.H.ni qo'llaridan o'pgan ekan. Ularning bir-biriga bo'lgan hurmat-ehtiromi yuksak bo'lgan". 1968-y. Muqimiy teatrida shoirning 525 yilligi munosabati b-n "Navoiy Astrobodda" (I.Maxsumov, Y.Rajabiy, S.Jalil) musiqali dramasini sahnalashtirib, o'zi bosh rolda chiqdi. N.ning bayt-u g'azallarini yuksak mahorat b-n ifodali o'qish orqali obrazning ta'sir kuchini yanada oshirdi. O'zbekiston xalq artisti Maryam

Ixtiyorova e'tirofi b-n aytganda: "R.H.ni keng jamoatchilikka yaqindan tanitgan, u kishini elga mashhur qilgan obraz – dunyo ekranlarini kezib chiqqan "Alisher Navoiy" filmidagi Navoiy! U kishi Navoiy obrazini benazir yaratgan iste'dodli aktyor sifatida o'zbek kino san'ati tarixida o'chmas iz qoldirdi va o'ziga badiiy haykal o'rnatdi". Davlat mukofoti (1948), Hamza nomidagi O'zbekiston Davlat mukofotlari (1964, 1970) laureati. Vafotidan so'ng "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni b-n mukofotlangan (2003).

Ad.: *ЎзМЭ. 2-жилд. – Т., 2003; Раҳмонов М. Ҳамза Ўзбек давлат академик драма театри тарихи. – Т., 2001.*

Z.R.

RAZZOQOV Alisher Abduzohidovich (1985) – n.shunos. R.A.A. prof. D.Salohiy rahbarligida "Alisher Navoiy she'riyatida ilm va ma'rifat talqini" mavzusida falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini himoya qilgan (2019). R.A.A. dissertatsiyasida N. she'riyatidagi irfoniy g'oyalar, xususan, ilm va ma'rifatning islomiy asoslari, tasavvufiy ildizlari aniqlangan. Tadqiqotning bir qismi N. she'riyatidagi tasavvufiy istilohlar sharhiga bag'ishlangan. Dissertatsiyada tasavvufiy timsollar badiiyatiga ham o'rin ajratilgan bo'lib, nubuvvat va valoyat, ishq va aql timsollarining ma'rifiy, adabiy-estetik mohiyati ochib berilgan.

Ad.: *Раззоқов А. Алишер Навоий шеъриятида илм ва маърифат талқини: Филол.фан.б. фалс.док. (PhD) дис... автореф. – Т., 2019.*

O.T.

RAZIIDDIN ALI LOLO (taxallusi; to'liq ismi: Shayx Raziiddin Ali ibn Said ibn Abduljamil Lolo G'aznaviy (t.y.n., G'azna − 1243, Isfahon) – mutasavvif shoir va tariqat piri. Otasi Hakim Sanoiyning amakivachchasi bo'lgan. Yoshligidan alohida qobiliyatlari b-n ajralib turgan. Haj niyati b-n safarga chiqqanda, Xurosonda Yusuf Hamadoniy suhbatiga yetgan. Turkistonda Ahmad Yassaviy muridlari qatorida bo'lgan. Tushida Najmiddin Kubroni ko'rib, uni izlab Xorazmga keladi. U Sharqda eng ko'p − 164 shayxning suhbati va xizmatida bo'lgani rivoyat qilinadi. N. "N.M." tazkirasida unga alohida firqa bag'ishlagan. N.ning yozishicha, 124 komil pirdan xirqa olgan va vafoti chog'ida 113 xirqa yonida bo'lgan. Najmiddin Kubro topshirig'iga ko'ra Hindistonga borib, ulug' avliyo Aburrizo Ratan suhbatiga yetadi va undan Muhammad (s.a.v.)ning o'ziga atalgan omonati − taroqlaridan birini oladi. Isfahonda olamdan o'tgan. Maqbarasi "Lolo gumbazi" nomi b-n mashhur bo'lib, shahardagi tabarruk ziyoratgohlardan biri hisoblanadi. Undan tasavvufga oid bir necha risolalar, so'fiyona she'rlar meros qolgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Донишмандлар туҳфаси. Рубоийлар (Э.Очилов тарж.). – Т., 2009.*

E.O.

RAY – qadimiy shaharlardan biri. Ajam Iroqida (yoki Iroqi Ajam – hozirgi Eronning g'arbiy qismi) joylashgan. Miloddan ancha ilgari paydo bo'lgan. O'rta asrlarda gullab-yashnagan va mo'g'ullarning harbiy yurishlari vaqtida buzilgan (1220). Keyinchalik qayta tiklangan. Sohibqiron Amir Temur R. mulkini to Rustamdor, Feruzko'h yerlarigacha o'zining qo'l ostidagi lashkarboshilardan amir Sulaymonshohga bergan edi. Sohibqiron vafotidan keyin R.ga birinketin qisqa-qisqa vaqtlar davomida Abubakr mirzo, Xalil Sulton, Iyjal mirzo, Ilangir mirzo hokimlik qilganlar. Shohrux Sulton R., Qum, Koshon, Rustamdor viloyatlariga o'zining ulug' beklaridan Ilyosxo'ja bahodirni hokim qilib tayinlagan. Keyinchalik R. Qoraqo'yunlilar va Oqquyunlilar davlatlari tarkibiga kirgan. R. shahri N. asarlarida tilga olinadi. N. mazkur shaharning tarixiga oid qaydlarni, ma'lumotlarni keltirgan. Jumladan, "T.M.A."da u Firuz binni Yazdijurdning R. navohiysida Firuzosor

degan mavze’ barpo qilganini yozadi. “Masnaviy” (“Sayyid Hasanga maktub”) asarida shunday bayt bor:

Tamoshosini kimki, bunyod etib,
Sipohon-u Ray mulkidin yod etib.

“S.I.“ dostonida esa N. R.ni Iskandar tomonidan bino qilingan shahar ekanligini aytadi:

Sipohon sari dasht qilg‘onda tay,
Bino aylabon shahre andoqki Ray.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Иран. История и культура. – М., 1980; Бартольд В.В. Работы по исторической географии и истории Ирана. – М., 1971; Абдураззоқ Самарқандий. Матлаъ ас-саъдайн мажмаъ ал-баҳрайн. – Т., 2008.*

Q.E.

RAMAL (ar. – tuyaning lo‘killashi) – foilotun (2-hijo qisqa, qolgan uch hijo cho‘ziq- – V – –) aslining takroridan hosil bo‘lgan bahr (foilotun foilotun foilotun foilotun- – V – – / – V – – / – V – – / – V – –). Ohangining yoqimliligi, jozibadorligi, yengil va o‘ynoqiligi hamda musiqiyligi jihatidan kuyga oson tushishi, xalq qo‘shiqlariga yaqinligi tufayli turkiy she’riyatda keng qo‘llanib, hatto aruzning turkiy vazni deb yuritilgan.

R. bahri forsiy va turkiy she’riyatda solim holda qo‘llanmaydi. O‘zbek adabiyotida uning musamman va musaddas vaznlaridan foydalanib kelingan. N. “M.A.”da R. bahrining 7 musamman, 4 musaddas va 2 murabba’ – jami 13 vazninigina ko‘rsatib, ularga misollar keltiradi. Bobur esa, “Muxtasar” asarida 31 musta’me, 28 muxtara, 12 mustama’li matbu’ – jami 59 vazni haqida ma’lumot beradi. O‘zbek she’riyatida mazkur bahrning 24 vaznidan keng foydalaniladi. M-n, “Qisasi Rabg‘uziy”da R.da bitilgan 29 ta she’r keltirilgan. Atoyi, Sakkokiy, Gadoiy, Hofiz Xorazmiy kabi shoirlar ijodida ham R. yetakchi o‘rin tutadi. M-n, Atoyining 260 g‘azalidan 109 tasi, Gadoiyning 233 g‘azalidan 157 tasi, Hofiz Xorazmiyning 1044 she’ridan 350 tasi R.da yozilgan. Husayn Boyqaro g‘azallarining esa barchasi R.da.

N. ham o‘z ijodida R. bahridan keng foydalangan. “X.M.”dagi 3132 she’ridan 1827 tasi, ya’ni 65 foizi R. bahrining turli vaznlarida ekanligi buning yorqin dalilidir. Uning ilk mashqlariyoq R. bahrining turli vaznlarida bo‘lib, jumladan, Sayyid Hasan Ardasher yod olgan quyidagi g‘azallari ramali musammani mahzufda yozilgan edi:

Furqatingdin za’faron uzra to‘karmen lolalar,
Lolalar ermaski, bag‘rimdin erur pargolalar.

Yoki:

Ul parivashkim, bo‘lubmen zor-u sargardon anga,
Ishqidin olam menga hayron-u men hayron anga.

“X.M.”da 2600 g‘azalning 1101 tasi (42 foizdan ko‘prog‘i) ayni vaznda yozilgan. 334 g‘azal esa musammani maqsurda, 25 tasi R.i musammani mashkulda, 10 tasi R.i musammani maxbunda, 5 tasi R.i musaddasi mahzuf va maqsurda va h.k. yoki tuyuq faqat R.i musaddasi maqsur (mahzuf) vaznida yoziladi. N. ijodida 13 ta tuyuq mavjud. M-n:

Charx tortib xanjari hijron bu tun,
Qo‘ymadi bir zarra bag‘rimni butun.
Tunga borib bizni behol aylading,
Ne balolig‘ yer emish, yo Rab, bu tun.

– V – – / – V – – / – V –

foilotun / foilotun / foilun

O‘zbek she’riyatida R.B.ning yigirma to‘rt vaznidan keng foydalanilgan bo‘lib, Zahiriddin Muhammad Bobur “Muxtasar” asarida “Ramal

bahri ellik to‘qqiz vazn, o‘ttiz bir musta’mal, yigirma sakkiz muxtara’, o‘n ikki vazn musta’mali matbu’”, – deya ta’kidlab, 59 vaznning barchasiga misollar keltirgan. N. “M.A”da R.B.ning o‘n uch vaznini misollar b-n sanab o‘tgan. Bular: musamman vaznidagi ramali musammani solim, ramali musammani maqsur (aruz va zarb), ramali musammani mahzuf, ramali musammani maxbun, ramali musammani maxbuni maqsur, ramali musammani maxbuni maqtu’, ramali musammani mashkul; musaddas vaznidagi ramali musaddasi solim, ramali musaddasi maqsur, ramali musaddasi maxbuni maqsur, ramali musaddasi maxbuni mahzuf; hamda murabba’ vaznidagi ramali murabbayi solim, ramali murabbayi maxbun vaznlardir. “N.M.” devonidan o‘rin olgan 3132 she’rdan 1827 tasi mazkur bahrda bitilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т., 1998; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Мухтасар. – Т., 1971; Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т., 1998; Ҳожиаҳмедов А. Навоий арузи нафосати. – Т., 2006; Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – T., 2020.*

E.O.

RAMLA – Yaqin Sharqdagi shahar. Ummaviylar hukmronligi davrida 705–716-yy.da barpo etilgan. Umaviylarning noibi sifatida hukmronliq qilgan Sulaymon ibn Abdulmalik (keyinchalik xalifa bo‘lgan) tomonidan asos solinganligi tarixiy manbalarda qayd etilgan. Sulaymon ibn Abdulmalik shaharni mudofaa devori b-n o‘ragan, bozor va mustahkam bir masjid qurdirgan. U qurdirgan imorat va inshootlardan hozir birgina Oq minora deb ataluvchi 27 metrlik minora saqlanib qolgan. R. so‘fizm tarixida alohida o‘rin tutadi. Buning sababi shundaki, so‘fiylarning birinchi xonaqohi R.da paydo bo‘lgan. N. “N.M.”da buni alohida ta’kidlab o‘tgan. “Avval xonaqokim, sufiylar uchun bino qildilar, Shomning Ramlasida erdi”, – deb yozadi N. bu haqda. Bu ma’lumot Abduhoshim Sufiy zikrida keltirilgan. N.ning yozishicha, tarixda birinchi bo‘lib so‘fiy nomini olgan shaxs Abduhoshim Sufiy bo‘lgan. N. so‘fiylarning birinchi xonaqohining paydo bo‘lishiga alohida to‘xtalgan. Uning qayd etilishicha, tarsolar ulug‘i ovga ketayotib, ikki darveshni ko‘rib qoladi va ularni kuzatadi. Ularning bir-biriga munosabati, o‘zaro hurmat va muhabbati, muomalalari unga ma’qul kelgan. Tarso darveshlardan birini chaqirib, ularning kimligini, oralaridagi bunday munosabat qay tarzda paydo bo‘lganini so‘raydi. Darvesh “Bizning tariqimiz shunday”, – deb javob beradi. Tarsolar ulug‘i darveshlarning to‘planib o‘tirishlari va muloqot qilishlari u-n joylari bor-yo‘qligini surishtiradi. Bunday joylari yo‘qligini bilgach, ular u-n maxsus bir bino qurdiradi va shu tariqa so‘fiylar u-n birinchi xonaqoh bunyod etiladi. N. bu ma’lumotning yana bir diqqatga sazovor jihati birinchi so‘fiylar xonaqosining tarso tomonidan qurilganidir.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

Q.E.

RAS – Tangrilik da’vo qilgan shaxs. Ma’lumki, tarixda payg‘ambarlik, xudolik da’vo qilgan shaxslar o‘tgan. Bu masala din tarixida o‘ziga xos o‘rin tutadi va manbalarda bu xususida ma’lumotlar bor. N. ham o‘z asarlarida ushbu masalaga to‘xtalib, munosabat bildirgan. Jumladan, “M.Q.”da u payg‘ambarlik da’vo qilgan kishilarni “xoin kozib” deb ataydi. Firavn va Namrud singari xudolik da’vo qilganlarni ulardan ham “g‘aflatkirdorroq va la’natqa sazovorroq” deb hisoblaydi.

R. ham ana shundaylardan biri bo‘lgan. Manbalarda uning Samud qavmidan bo‘lgani Mag‘rib yerlarida hukmdorlik qilgani aytiladi. R. juda uzoq umr ko‘rgan hamda ulkan saltanat sohibi bo‘lgan. Shu tufayli g‘ururga berilgan va oldinlari Tangrini tan olgan va unga sig‘ingan bo‘lsa, keyinchalik o‘zini Tangri deb hisoblay boshla-

gan. Tangri taolo unga Xantala ibn Safron Kahr ibn Qahtonni yuborgan. U R. va uning qavmini to‘g‘ri yo‘lga da’vat qilgan, gunohdan qaytarishga uringan. Lekin R. uning so‘zlarini qabul qilmagan. Shundan so‘ng Tangri taolo Xantala duosi b-n R. va uning qavmini suvdan mahrum qilgan. R. bu ish Xantala duosi tufayli bo‘lganini bilib, Xantalaga qarshi qo‘shin tortgan. Xantala ham o‘ziga qarashli qo‘shinlarni to‘plab, unga qarshi chiqqan. R. qo‘shinidan bir kishi birinchi bo‘lib o‘q uzgan. Lekin uning o‘qi orqa tomonga uchib, otgan kishining o‘ziga tekkan va uni halok qilgan. R. qo‘shini yengilgan.

N. “T.A.H. ”da Xantala ibn Safron zikrida yuqoridagi voqealarga to‘xtalib o‘tadi. Uning yozishicha, lashkari yengilib, qirilib halok bo‘lgandan so‘ng R. bir misdan qurilgan qal’aga kirib, yashirinib olgan va o‘sha yerda o‘lgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик.,8-жилд. – Т., 2011; Носириддин Бурҳониддин Рабғузий. “Қисаси Рабғузий”. – Т., 1991.*

Q.E.

RASAD – observatoriya, osmon jismlarini kuzatishga mo‘ljallangan astronomik qurilma, inshoot. O‘z davridagi manbalarning barchasida u rasad deb atalgan. Abdurazzoq Samarqandiy o‘zining tarixiy asarida 1420-(hijriy 823) y. voqealarini bayon etar ekan, Samarqandda Ulug‘bek tomonidan qurilgan observatoriya haqida ma’lumot beradi va uni “rasad” deb ataydi. Bobur ham shu atamani qo‘llaydi va yozadi: “Bir oliy imorat Pushtayi Ko‘hak zamonasida rasaddurkim, zich bitimakning olatidur”. Bundan tashqari u o‘tmishda turli davrlarda bo‘lgan observatoriyalar, jumladan, Ma’mun observatoriyasi, Elxoniylar observatoriyasi, va boshqalar haqida ham ma’lumot beradi va barchasini “R.” deb ataydi. Ulug‘bek R.i Samarqandning shimoli-sharq tomonida Ko‘hak tepaligi etagida 1420-y.da qurilgan. Uch qavatdan iborat bo‘lgan. Uning asosiy qismini sekstant tashkil etgan. “Matla’yi sa’dayn va majmayi bahrayn”da yozilishicha, Ulug‘bek u oliy imoratlarning xonalari ichiga to‘qqiz falakning hay’ati-yu to‘qqiz osmon doiralari shakllarini darajalar, daqiqalar, soniyalardan tortib to asharalargacha hamda aylanuvchi falaklar, yetti sayyora sobita yulduzlar ko‘rinishi, yer kurrasi hay’ati-yu iqlimlar suratlarini tog‘lar, biyobonlar... bilan birga chizishga” buyurgan. Ana shu rasad yordamida “Ziji Ko‘ragoniy” deb nom olgan yulduzlar jadvalini tuzgan. R.ga N. ham o‘z asarlarida to‘xtalib o‘tgan. U ham observatoriyani rasadxona deb emas, R. deb atagan. “M.N.”da u Ulug‘bek Mirzo ma’lumot berar ekan, uning R. bog‘lagani va zij tuzganini ham qayd etadi: “Hayrat va riyozatni xo‘b bilur erdi. Andoqkim zij bitdi va rasad bog‘ladi va holo aning ziji oroda shoye’dur”. Shoir Ulug‘bek Mirzo va uning rasadini “F.Sh.” dostonida ham tilga olgan:

Rasadkim bog‘lamish – zebi jahondir,
Jahon ichra yana bir osmondur.

Bilib bu nav’ ilmi osmoniy,
Ki andin yozdi “Ziji Ko‘ragoniy”.

Qiyomatg‘a degincha ahli ayyom,
Yozarlar aning ahkomidin ahkom.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Абдураззоқ Самарқандий. Матлаъи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. – Т., 1969; Заҳириддин Муҳамамад Бобур. Бобурнома. – Т., 2002.*

Q.E.

RASMIY DEVONLARGA KIRMAGAN SHE’RLAR – N. bolalikdan boshlab umrining oxirgi kuniga qadar she’r yozgan va bu sohada g‘oyat samarali ijod qilgan bo‘lib, u o‘zbek tilidagi she’rlaridan “B.B.”, “N.N.”, “H.M.” devon-

larini, fors tilidagi she'rlaridan "D.F."ni tuzgan. Shu b-n birga shoirning maxsus nom b-n tuzilgan forsiy qasidalaridan iborat "S.Z.", yilning to'rt fasli haqidagi "Fusuli arbaa", Abdurahmon Jomiy she'rlarining tarjimasidan iborat "A.", ta'-lim tarbiya xarakteridagi o'zbekcha ruboiylarni o'z ichiga olgan "N.J." to'plamlari ham mavjud. Ular ham N. lirik merosining muhim bir qismini tashkil etadi.

Ayni vaqtda N.ning lirik merosi ana shu to'plamlardan iborat deyish xato. Bundan boshqa ham N. she'rlarining katta va muhim bir qismi borki, ular ham shoir she'riyatini to'la tasavvur etish qiyin. N.ning rasmiy devonlariga va maxsus nomlar b-n ataluvchi she'riy to'plamlariga kirmagan she'rlarini ikki guruhga bo'lish mumkin:

Shoirning ilmiy-filologik, tarixiy va nasriy asarlari tarkibidagi she'rlari.

Shoirning boshqa mualliflar asarlarida keltirilgan, eslatilgan va o'sha manbalar orqali bizga ma'lum bo'lgan she'rlari.

Birinchi guruhga oid she'rlar yuzasidan shuni eslatish kifoyaki, N.ning "T.M.A." asarida 50 dan ortiq masnaviy uslubida, to'rtlik shaklida mutaqorib vaznida yozgan she'rlari, "V." da 15, "M."da 56, "H.M." debochasida 10 ruboiysi bor. "M.Q."da ruboiydan tashqari 11 qit'a, 12 masnaviy, 68 mustaqil bayt, 4 nazm bor. Bunday hol "M.A.", "M.L." va boshqa asarlarga ham xos. Bu asarlarda biz N.ni faqat olim, yoki tarixchi yoki adib qiyofasida emas, shoir sifatida ham ko'ramiz. Ko'p o'rinda shoir o'z fikrlarini she'r b-n ifodalagan, umumlashtirgan va yanada aniqlashtirgan.

Ikkinchi guruhga XV asrning ikkinchi yarmida va XVI asrning boshida yashab ijod qilgan mualliflarning adabiy, ilmiy, tarixiy asarlarida biror sabab yoki munosabat keltirilgan N. she'rlarini kiritish mumkin. Ma'lumki, N. o'z davrining peshqadam shoiri bo'lish b-n birga katta davlat arbobi, madaniyat homiysi ham edi. Shu tufayli u o'z davrining ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida faol qatnashgan, binobarin o'ziga zamondosh siyosat va madaniyat arboblari b-n ham qalin munosabatda bo'lgan, shu davrning Xurosondagi biron muhim siyosiy va madaniy voqeasi uning ishtirokisiz hal bo'lmagan. Bu to'g'rida "M.L." asarida N.ning ham maxsus qaydi yo'q emas. Binobarin, shu davrda yaratilgan qator asarlarda biron munosabat b-n yozilgan yoki badiha yo'li b-n aytilgan N. she'rlaridan namunalar ham uchrab turadi. M-n, Xondamirning "Makorim ul-axloq" asarida Mavlono Sone'iy degan zolim amaldorning kirdikorlari fosh etilishi munosabati b-n N.ning badeha usulida forsiy bir misra aytgani ma'lum qilinadi va o'sha misra keltiriladi ham:

"Mavlono Sone'iy zolim kishi edi. U bir qancha vaqt vazirlik darajasiga ko'tarilgan edi. Boshiga katta salla o'rardi. Xullas, uning yoqimsiz qiliqlari Sohibqiron (Husayn Boyqaro) ning quyoshdek nurli diliga ravshan bo'lgach, unga g'azab qilib, boshidan sallasini olib tashlashga buyurdilar. Oliyhazrat o'sha yerning o'zida shu misrani aytib yubordilar:

Chu bori sar sabuk kardi,
sabuk kun bori gardan ham.

Maz.: Bosh yukini yengillatding, endi bo'yin yukini ham yengillat. Bunday ma'lumot "Makorim ul-axloq"da ko'p. Xondamir N. va uning ijodini yaqindan bilgan. Uning ma'lumotlariga to'la ishonish mumkin. Bu xil faktlarni Zayniddin Vosifiyning "Badoye' us-sanoye", Abdulmo'minning "Tom ut-tavorix" va boshqa asarlaridan ham keltirish mumkin. Bu xil she'rlar N.ning ijodiy biografiyasini yanada boyitadi va to'ldiradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий.*

Мажолис ун-нафоис. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Айёми висол ўлди яна. – Т., 1995; Навоий ва ижод сабоқлари. Мақолалар тўплами. – Т.,1981.

Ab.H.

RASUL (ar. – elchi) – 1. Elchi, xabar keltiruvchi, qosid. 2. Allohning vakili, elchisi, payg‘ambari. Islom an’anasida Alloh tomonidan tanlanib, xalqni hidoyat yo‘liga boshlash u-n vakil qilingan va ilohiy kitob nozil qilingan payg‘ambar. Muhammad (s.a.v.)ga nisbatan hamisha R. nomi qo‘llanadi. N. asarlarida ham Muhammad (s.a.v.) R., Rasulullo deyilgan. “B.B.” debochasida o‘qiymiz: “Bu nav’ xayole xotirg‘a kelgan uchun har harf g‘azaliyotining avvalg‘i g‘azalini yo Tangri taolo hamdi bila muvashshah, yo rasul alayhis-salom na’ti bila mufattah, yo bir mav’iza bilakim, bu ikki ishdin biriga dol bo‘lg‘ay, muvazzah qilindi”. “N.Sh.” devonidagi na’t g‘azallaridan birida esa:

Ey Navoiy, chorayi dardingni qilg‘ay ulki bor
Ham rasulu ham amin, ham mustafo,
ham mujtabo,

deydi. Nabiy ham payg‘ambar, lekin u o‘z ummatlariga yangi shariat bilan kelmaydi, o‘zidan oldingi shariatga amal qiladi hamda shunga da’vat qiladi. Shuning u-n ham har bir payg‘ambarni nabiy deyish mumkin, lekin har bir nabiyni R. deb bo‘lmaydi. R. sohibi shariatdir. Badiiy adabiyot Muhammad (s.a.v.) axloqi b-n xulqlanishga da’vat etadi. Ul zotning kasbi kamolotini madh etib, insoniyatga ibrat qilish bosh maslagidir. N. “X.M.” tarkibidagi so‘nggi doston “F.K.”ning so‘nggi g‘azalini shunday yakunlaydi:

Sening madoyihi na’tingda, yo Rasulalloh,
Tamom bo‘ldi Navoiy takallumi poki.

Bu to‘rt daftarida hamd-u na’t aro xalali,
Gar yetmish o‘lsa ayon tab’u kilki beboki.

Demak, shoir o‘zining butun lirik merosi Alloh hamdi va Rasulullo (s.a.v.) na’tidan iborat ekanligini ta’kidlamoqda. Muhammad (s.a.v) ning R.ligi hatto kalimayi shahodatda ham o‘z ifodasini topgan. Ushbu iymon kalimasi dillarni poklashi ta’kidlangan. Bu Haq ahlining doimiy zikridir. Shu bois valiylar tazkirasi “N.M.”da: “Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy q.t.r.g‘a ko‘ngul zikri sabaqi yigitlikda Xoja Xizr (a.s.) din bo‘lubdur va ul sabaqqa muvozabat ko‘rguzubdurlar va Xoja alardin farzandliq qabul qilibdurlar va buyurubdurlarki, havzlug‘ suvg‘a kirib, g‘o‘ta ur va ko‘nglungda “lo iloha illallohu Muhammadur rasulolloh” degil. Alar Xoja buyurg‘ondek qilibdurlar va ishga mashg‘ul bo‘lubdurlar va kushodlar topibdurlar...” ma’lumotiga N. alohida e’tibor qaratadi. R. so‘zi o‘zining asl lug‘aviy ma’nosi, ya’ni elchi o‘rnida ham istifoda etiladi. N. ijodida R. ham elchi, ham payg‘ambar ma’nosida keng qo‘llanilgan. “L.T.” dostonidan o‘rin olgan “Iskandarning elchilikka borg‘on hikoyati”da ham shu ma’noda keladi:

Bordi ul kishvarg‘akim borg‘ay rasul,
Ayladi onda rasulona nuzul.

Dedi elga budur Iskandar so‘zi,
Turfa bukim erdi Iskandar o‘zi.

R. lafzi elchi ma’nosida farishtalarga nisbatan ham qo‘llanilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Ислом. – Т., 2004; Фарҳанги забони тожики. Жилд 2. – М., 1969; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик, 2-жилд. – Т., 1984.*

S.R., Z.R.

RAFIDDINOV Sayfiddin (1958, Qashqadaryo) – adabiyotshunos, tasavvufshunos, matnshunos, tarjimon, xattot. 1982–1987-yy.da Samarqand Davlat universiteti o‘zbek va tojik filologiyasida, 1999–2001-yy.da Toshkent islom oliy institutida tahsil olgan. “Atoiyning poetik mahorati” mavzusida nomzodlik ishini himoya qilgan (1994). O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining a’zosi (1998), Xalqaro Ahmad Yassaviy mukofoti sovrindori (1994); Gretsiyaning “Antik dunyo xalqaro ilmiy akademiya”si faxriy prof.i (2013). R.S. “Majoz va haqiqat”, “Buyuklar halqasi”, “Fatvo va taqvo kitobi”, “Tabarruk siymo”, “Yetti pir (Dunyo murshidlari)”, “Ruboiyoti hazrati Naqshband”, “Tasavvuf va naqshbandiylik (manbalar va hikmatlar)”, “Xojagon-naqshbandiya (asoslar va rashhalar)”, “Dillar ichra naqshi devoning qolur” singari kitoblar muallifi, mumtoz adabiyot, din, tasavvuf, xattotlik va matnshunoslikka doir 300 dan ziyod maqolalar e’lon qilgan.

R.S.ning ijodiy va ilmiy faoliyatida N. mavzusi maxsus o‘rin tutgan. Olim N. hayoti va ijodi yuzasidan bir necha yo‘nalishlarda ish olib boradi:

1. Jumladan, uning mamlakatimiz va xorijda o‘tkazilgan anjumanlar to‘plami hamda nufuzli jurnallarda e’lon qilingan “Alisher Navoiy va naqshbandiylik”, “Navoiy she’riyati va qalandar timsoli”, “Navoiy ijodida Ka’ba tavsifi”, “Mavlono Jaloliddin Rumiy va Alisher Navoiy”, “Alisher Navoiy asarlarining nashri haqida” va b. ko‘plab maqolalari ulug‘ mutafakkir ijodining irfoniy nuqtayi nazardan teran talqin qilingani bilan xarakterlidir. Olimning “Navoiy va Islom ma’rifati” nomli monografiyasi Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondi tomonidan “Istiqlol davri o‘zbek navoiyshunosligi” nomli 30 jildlik ilmiy tadqiqotlar to‘plamiga tanlab olindi va uning 22-jildida 2021-y. nashr etildi.

2. Shoir asarlarini tarjima qilishda mohirlik ko‘rsatgan R.S. N.ning “D.F.”sidan o‘rin olgan g‘azallari va “S.Z.” (“Olti zaruriy qasida”) tarkibidagi “Ruh ul-quds”, Ayn ul-hayot”, “Tuhfat ul-afkor” qasidalarini forsiydan o‘zbek tiliga o‘girgan.

3. N. asarlarini nashrga tayyorlash sohasida ham R.S. juda faol ish olib borgan. Dastlab N. ning 20 jildlik “Mukammal asarlar to‘plami”ning 17-jildida “N.M.” tazkirasidagi arabcha va forscha matnlarni tarjima qilib, nashrga tayyorlagan va mazkur jildga mas’ul muharrirlik qilgan olim, 18, 19 va 20-jildlarini hozirlashda ishtirok etdi va mas’ul muharrirlik vazifasini bajardi. N.ning 10 jildlik “To‘la asarlar to‘plami” 1, 3, 5, 7, 8, 9, 10-jildlarini so‘zboshi, izoh va lug‘atlar bilan chop ettirdi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ситтаи зарурия (Олти зарурий қасида). (Таржимон Рафиддинов С). – Т., 2005, 2008; Рафиддинов С. Мажоз ва ҳақиқат. – Т., 1995; Рафиддинов С. Алишер Навоийнинг “Насойимул муҳаббат” асаридан ҳикматли сўзлар. – Т.: 2001; Рафиддинов С. Навоий ва Ислом маърифати: Истиқлол даври ўзбек навоийшунослиги. 30 жилдлик, 22-жилд. – Т., 2021.*

S.O‘.

RAFRAF (ar.) – 1. Yostiq, ko‘rpa, to‘shalgan har qanday narsa. 2. Zinapoya. 3. Qushning inish paytidagi qanot qoqishi, mavjning tez harakati. 4. Me’roj kechasi Buroqdan keyin Payg‘ambarimizni mindirib, Allohning huzuriga olib borgan gilam (ayrim manbalarda o‘ziga xos markab ham deyilgan). Bu so‘z Qur’oni Karimning faqat “Ar-rahmon” surasi, 76-oyatda “yostiq” ma’nosida keladi. N. me’roj voqelariga to‘xtalar ekan, hazrat Payg‘ambarimiz (s.a.v) ning Jabroil (a.s.) hamrohligida Buroq degan uchqur markab b-n Sidrat ul-muntaho degan joygacha borganlari haqida yozadi. Ularga undan nariga imkon ham ruxsat ham yo‘q edi. U joydan ikkalasi b-n xayrlashib, R.ga o‘tirib, Allohning xos huzuriga yo‘l oladi.

Rafraf uza po‘ya qilib chun kushod,
Hamrah-u rahravg‘a yetib xayrbod.
Chun yo‘lida qolmadi aslo makon,
Qildi makon bodiyayi lomakon.

Aynan hazrat Payg‘ambarimiz(s.a.v)ning Buroqdan inib, R.ga o‘tirib, Alloh huzuriga yo‘l olishlari, hech bir insoniyatga nasib bo‘lmagan holat va diydorlashuv lahzalari “F.Sh.” dostonida ham rivojlantirilgan.

Tushub andin biyik chun ittifoqi,
Borib andoqki tebranmay Buroqi.

Samandin tashlagach ul ma’naviy ganj,
Samandidek tutub paykin dog‘i ranj.

Quvonib poybo‘si birla Rafraf,
Maloyik yer o‘pub ollida saf-saf.

Etak silkib, ayoq tortib boridin,
Qo‘yub yuz benishonliq har soridin.

Ad: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик, 2-жилд. – Т., 1983.*

S.R.

RASHHALAR – tomchi, sizib chiqqan suyuqlik (ko‘pligi Rashahot). Xojagon-naqshbandiylik tariqatida amal qilishi kerak bo‘lgan mashhur o‘n bir R. (qoida va talab)lar quyidagilardir: hush dar dam, nazar bar qadam, safar dar vatan, xilvat dar anjuman, yodkard, bozgasht, nigohdosht, yoddosht, vuqufi zamoniy, vuqufi adadiy, vuqufi qalbiy. Mazkur rashhalarning avvalgi sakkiztasi Abduxoliq G‘ijduvoniy tomonidan va oxirgi uchtasi Bahouddin Naqshband tarafidan ishlab chiqilgan va tariqatga kiritilgan. Ayrim olimlarning e’tirofiga ko‘ra, R.ning dastlabki to‘rttasi Yusuf Hamadoniy tomonidan, keyingi to‘rttasi Abduxoliq G‘ijduvoniy tarafidan tariqatga kiritilgan. O‘n bir R.ni tasavvuf olimlari turlicha talqin qilganlar. Ular, asosan, quyidagi ma’nolarni bildiradi:

1. Hush dar dam. Har bir nafas olish va chiqarishda g‘aflatdan ogoh bo‘lish. Hazrat Xoja Bahouddin shunday ta’kidlaydi: “Bu yo‘lda ishning asosini nafas ustiga qurmoq kerakki, zamonning muhim vazifasiga mashg‘ul bo‘lishda xayolni o‘tmishdan va fikrni kelajakdan ozod etsin va har bir nafasni zoye etmaslikka urinsin. Nafas olishda, chiqarishda va ikki nafas orasida harakat qilsinkim, nafasi g‘aflat bilan kirib chiqmasin”.

2. Nazar bar qadam. Solik gunoh va g‘aflatga sabab bo‘ladigan joylarga bormaslik va qaramaslik uchun tashlayotgan qadamlarini nazorat qilishi, oyoq uchiga qarab yurishi kerak.

3. Safar dar vatan. Vatanida, ya’ni turgan joyida ma’naviy-ruhoniy safar qilish. Bashariy sifatlardan ilohiy sifatlarga o‘tish uchun botin olamiga safar qilish. Odatda, safar qilish deganda, vatanini tashlab, sayohatga, mashaqqatli yo‘lga chiqish anglansa, botiniy ma’noda vatanda turib qalban ma’naviy safar qilib, dunyoga, olam ajoyibotlariga, inson ruhiyatiga basirat ko‘zi b-n nazar tushuniladi.

N.ning “L.T.” asarida murshid timsoli bo‘lgan Hudhud maqtanchoq bir tovuqqa javob berar ekan, Sidra daraxti ostida yashaydigan boshqa bir qush haqida gapirib, uni maqtaydi va naqshbandiya odoblariga binoan, “vatanda sayr” etganiga e’tibor qaratadi.

Dedi Hudhudkim: – Bu so‘z bevajh emas,
Gar kishi bu so‘zni holidin demas.

Bor oningdek qushki ochmay bol-u par,
Sidra shoxi ustida aylar maqar.

Keldi xilvatgohi oning anjuman,
Sayr etar, lekin yeri doim vatan.

Arsh parvoz o‘ldi-yu sidranishin,
Elga zohir aylamay parvoz ishin.

Ermas ul Simurg‘din ayru dame,
Vaslidin ko‘ngliga o‘zga olame.
Etmayin jonig‘a hajridin gazand,
Surati vaslida har dam naqshband.

4. Xilvat dar anjuman. Zohirda xalq bilan, aslida (botinda) Haq b-n bo‘lish. Xojagon-Naqshbandiyada xilvat dar anjuman ko‘pchilik ichida, jamoat orasida Alloh yodi b-n bo‘lish, Allohni aslo unutmaslik holidir. Jamoat ichida Alloh b-n bo‘lish xislatiga osonlikcha erishilmaydi. Mudom zikr va taqvo talabidagi tolib riyozati b-n erishiladi. Shuning u-n tariqatda xilvat dar anjuman asosiy R.dan sanaladi. N. “S.I.” dostonida ham safar qilishning mashaqqatlari haqida gapirar ekan, iloji boricha, vatanni tark etmaslikni, do‘st-u yorlarni g‘animat bilib, umrni xushvaqt o‘tkazishni maslahat beradi. Lekin safar qilolmagan odam sayr-u sayohatga rag‘batli bo‘lsa, o‘z vatanida safar etishni, anjuman ichida xilvatda bo‘lishni, “safar dar vatan” va “xilvat dar anjuman”ga amal qilib, ruhiy-ma’naviy sayohatda bo‘lishni tavsiya qiladi:

Va gar sayrg‘a asru rog‘ib esang,
Safar naf’-u zarrig‘a tolib esang.

Musofir bo‘l, ammo vatan ichra bo‘l,
Tila xilvat-u anjuman ichra bo‘l.

5. Yodkard. Til zikri b-n birga qalb zikrini ham bajarish. Til zikr qilganda, qalbni ham zikrga yo‘naltirish. Til va qalb b-n tavhid zikrini jamlab, xotirlab turish. “Yodkard” forscha so‘z bo‘lib, eslash, xotirlash deganidir. Arabchadagi zikrga to‘g‘ri keladi.

6. Bozgasht. Bozgashtan – orqaga, asl maqsadga qaytish degani. Tariqatda solikning ma’lum zikrlardan, holatlardan so‘ng ibodatdan maqsad faqat Alloh rizosi ekanligini xotirlashi va idrok etishidir. Shuning u-n mashoyixlar: “Alloh, Alloh”, “La ilaha illalloh” kabi zikrlarning ma’lum sanog‘idan so‘ng “Ilohi, anta maqsudiy va rizoka matlubiy”, ya’ni “Allohim, maqsadim sensan va talabim sening rizongdir”, deyishni tavsiya qilganlar. Demak, zokir bu jumlani aytish b-n o‘ziga keladi, asl maqsadga qaytadi. Nega zikr qilayotganini his qiladi.

7. Nigohdosht. Qalbni behuda fikr-u xayollardan (xavotirlardan) saqlash. Nigoh – boqish demak. Nigohdashtan – boqmoq, muhofaza qilmoq, qo‘rimoq demak. U solikning aqliga yomon narsalar kelmasligini, qalbining buzilmasligini, ko‘ngli qoraymasligini, diliga turli o‘y-fikrlar kelmasligini ta’minlaydi.

8. Yoddosht. Zikr sababidan hosil bo‘lgan hushyorlikni, ogohlikni davom ettirish va har nafasda Allohdan ogoh bo‘lish. Yoddosht – yodda tutmoqdir. Solik bunda Haq subhanahu va taoloni doimo zavq-u shavq b-n yodida tutadi. O‘zida hosil bo‘lgan kamolotni, erishgan holatini muhofaza etadi. Allohning huzurida ekanligini aslo unutmaydi.

9. Vuqufi zamoniy – o‘tayotgan lahzalarni sarhisob qilish. Tolib doimo o‘z ahvolidan xabardor bo‘lishi, har bir zamonda o‘z holi va sifati qanday – shukr paytimi, uzr paytimi – buni bilishi kerak. Har bir lahzasini hisob-kitob qilishi va qadrlashi lozim. N. ham o‘tayotgan lahzalarning g‘animatligidan ogohlantirib yozadi:

Moziy-u mustaqbal ahvolin takallum ayla kam,
Dam bu damdir, dam bu damdir,
dam bu damdir, dam budam.

10. Vuqufi adadiy – zikrda sanoqqa rioya qilish. Shu vosita b-n parishonxotirlikning oldini olish va muayyan maqsadga erishish.

11. Vuqufi qalbiy – zikrda qalbga tavajjuh qilish yoki qalbning Allohga qaratilishi va undan g‘ofil bo‘lmasligidir.

N. g‘azallarida, dostonlarida rashhalar haqida yo‘l-yo‘lakay fikrlar uchraydi. Lekin “Qanoat naqshining ifshosi-yu naqshbandiya tariqining adosi” sarlavhali 11 baytli qit’asida R.ga maxsus to‘xtalganini ko‘ramiz. (Q.: Qanoat tariqig‘a kir...)

Ko‘rib o‘tganimizdek, R.ning N. ijodiga bevosita va bilvosita ta’sirlari bor. Ularni yaxshiroq

bilsak, shoir ijodini yanada chuqurroq o‘rganishimizga yo‘l ochadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Али Сафий. Рашаҳоту айнил ҳаёт. – Т., 2004; Сайфиддин Сайфуллоҳ. Хожагон-нақшбандия (асослар ва рашҳалар) – Т., 2019.*

S.R.

RAXSH (ar.) – 1. Chaqmoq; shu’la, nur aksi, tovlanish. 2. Ikki rangli: oq-u qizil yoki qora-yu qizil rang omuxtasi. 3. Ot, uchqur ot. 4. Rustami dostonning oq-u qizil tusli oti. Umuman, ot ma’nosida ham keladi. N. asarlarida R. so‘zi ko‘p tilga olinadi. Uning asarlarida R.i teztak – chopqir ot, R.i xiromi – otning yo‘rg‘alab yurishi. R. surmoq – ot surmoq; hujum qilmoq, g‘orat etmoq kabi R. so‘zi yordamida yasalgan iboralar ham uchraydi.

Ad.: *Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. – Душанбе, 1987; Фарҳанги забони тожики. Жилд 2. – М., 1969; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. – Т., 1984.*

E.O.

RA’D – “S.I.” dostonidagi epizodik obraz. Chumolisimonlar xayliga qarshi urushga shaylangan Iskandar lashkari ziddida saf tortgan “manglayidan shox o‘sib chiqqan” vahshiy devlar guruhidan. Sherdek abjir va epchilligi u-n “R.” laqabini olgan “fildek bahaybat, korkidondek kuchli” bu dev Iskandarning dong‘i ketgan o‘n uch pahlavonini yengib, shoh ko‘ngliga vahima va sarosima soldi:

Laqab Ra’d anga ahli parxosh aro,
Vale ra’ddek yer tutub tosh aro.

Chu maydon aro kirdi gurdi daler,
Aningdekki ajdar masofig‘a sher.

Ammo niqob yopingan jasoratli chavandoz – Lu’bati Chin (Chiniy Najod) b-n yakkama-yakka jangda mag‘lub bo‘lib, bandi etiladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Фарҳанги забони тожики. Жилд 2. – М., 1969; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик, 2-жилд. – Т., 1984.*

A.A.

RAQAMLAR. 1 raqami – N. ijodida ko‘p murojaat etilgan.

Haqni tanimoq, butun mavjudotning Yaratuvchisi tanho ekanligini bilmoq, yakka-yu-yagonaligiga ishonmoq – tavhiddir. Tavhidga erishgan solikning ko‘zi “Bir”ni ko‘radi, qulog‘i “Bir”ni eshitadi, tili “Bir”ni so‘zlaydi:

Bir bo‘l-u bir ko‘r-u bir de, bir tila,
Mayl qilma munda ikkilik bila.

Ikkilik bu yo‘lda ahvolliqdurur,
Sirri vahdatdin mu’attalliqdurur.

Komil inson – Allohning siri, Allohni yer-u ko‘kdan izlash noo‘rin. Hikmat-davriyada: “Erni ko‘rdim ergashdim, istadugimni so‘rdim. Barchasi senda dedi, qoldim hayron ichinda” – singari misralarda insoni komil shaxsiyati e’tirof etilgan bo‘lsa, fano maqomiga erishgan solikka nisbatan:

Zotning ijmolig‘a tafsilsen,
Ham vujud ishkolig‘a ta’vilsen.

O‘z vujudingg‘a tafakkur aylagil,
Har ne istarsen o‘zungdin istagil, –

deyilgan. Bir dam, bir on, bir lahza va fursatlarni qadrlash, ularning zoye ketmasligini his qilish qalb uyg‘oqligidan dalolat beradi.

Bir qadah may ichmadim sarvi gulandomim bila,
Bir nafas evrulmadi davron mening komim bila.

Bir on, bir lahza, bir dam va bir nafasda shunday bir katta mazmun yashirinki, ularning quv-

vati va shu paytlarda erishiladigan ilohiy fayzlar takrorlanmasdir. Haqiqiy oshiq shu boisdan “bir nafas”, “bir lahza” singari juda qisqa fursatlarni qadrlaydi va ularga qandaydir javobgarlik b-n yondashadi.

2 raqami – eski yunon olimlarining bu raqamga doir qarashlari Sharq mutasavviflarinikiga ancha yaqin keladi. Zero, yunonlar ham ikki raqamida ziddiyat, qarama-qarshilik, tushunchalardagi nomuvofiqlik hamda teskarilik alomatlarini ko‘rishgan. Ishq otashida yongan oshiq ham “ikkilik” fikrini, ya’ni “men” va “sen”ni tark etadi. Insonda kasrat vahmi mavjud ekan, tom ma’nosi ila Mavlosini taniy olmaydi. Chunki “men” va “sen” aqidasi b-n yashash – vahdatni inkor etishdan o‘zga narsa emas. Ikkilik ayni zamonda Yaratganning qudratini inkor aylab, unga eng kuchli dalil bo‘lgan yaratilmishni Yaratgandan ayri ko‘rish va bilishdir. Bu esa haqiqatda “shirk”dir. N. buni shunday so‘zlar b-n bayon etadi:

Ikkilik pardasi yo‘qdur ko‘zimda
Birlikdir murodim, o‘zim, so‘zimda.

Kecha-kunduz doim Haq niyozimda
Qiblagohim, Shohi Mardona keldim.

She’riyatda ikki raqami ko‘pgina o‘rinlarda “dunyo”, “olam”, “dahr”, “jahon”, “kavn” so‘zlari b-n birga qo‘llanilib, ikki dunyo – foniy (o‘tkinchi) va boqiy (abadiy) dunyo mazmunida ishlatilgan. N.ning “X.M.” va “X.”sida oltmishga yaqin o‘rinda “ikki olam” (dahr, jahon, dunyo, kavn) birikmasi ishlatilgan. “Ikki olam”:

Vasli birdamliqki tushkay ittifoq,
Ikki olam shohlig‘idin yaxshiroq.

“Ikki dunyo”:

Ikki dunyoni ko‘ngul berdi soching tori uchun
Ko‘rki oz moya bila ul ne balo sud yetti..

“Ikki kavn”:

Mayxona Navoiyg‘a-yu zohidg‘a iki kavn,
Kim, anga g‘araz ikki sarodin bu sarodur.

“Ikki dahr”:

Kerak quyosh dirami tanga bo‘lsa bay’ona,
Chu Yusufumni iki dahrg‘a baho qilsam.

Badiiy asarda biror so‘zni o‘z ma’nosidan boshqa bir ma’noda qo‘llash san’ati – istiorada 2 raqami faol ishlatilgan. “Ikki tardoman” ko‘z ma’nosida:

Vaslig‘a ko‘z mahram ermastur,
netib mahram bo‘lur,
Ikki tardomanki, tanug‘lug‘ berurlar qonima, –

qo‘llanilgan. “Tardoman” forscha “tar” – “ho‘l” va “doman” – etak so‘zlaridan tuzilgan qo‘shma so‘z bo‘lib, “etagi ho‘l” degan ma’noni bildiradi. Ko‘z doim yoshlanib turish xususiyatiga ega bo‘lganligi u-n ham unga nisbatan shu sifatlash qo‘llaniladi. Shuningdek, tardoman yuzi qora, degan ma’noni ham anglatadi.

N. she’riyatida ko‘z so‘zi o‘rnida “ikki nargisi jodu”:

Nazarg‘a kelgali ul ikki nargisi jodu,
Ko‘ngulda yo‘qturur orom-u ko‘zda ham uyqu.

“Ikki bulog‘”:

Xayoling etti Navoiy boshinda manzilgah,
Nedinki bir tepada joriy erdi ikki bulog‘.

“Ikki kofir” yoki “ikki nomusulmon”:

Har dam o‘rtarlar meni o‘tlug‘ iki kofir ko‘zung,
Necha kuygaymen ul ikki nomusulmon o‘tig‘a.

“Ikki sayyod”:

Eyki dersen, ko‘zlarim ko‘nglungni
ne nav’ etti sayd,
Bir kabutar netsun oxir ikki sayyoding bila.

istioralari ishlatilgan. So‘nggi misolda ma’shuqa ko‘zining oshiq ko‘nglini rom etganligi qayd etilib, bu hodisa “sayd” – ov qilishga nisbat berilgan. Shu bois 2-misrada ov b-n bog‘liq tushunchalar – “kabutar”, “sayyod” so‘zlari keltirilib, oshiq qalbi “ikki sayyod” (ma’shuqa ko‘zlari) qarshisida ilojsiz qolgan kabutarga qiyos qilinmoqda.

3 raqami – N. ijodida ayrim hayotiy va insoniy haqiqatlarga keng e’tibor qaratish va buni alohida ta’kidlash u-n uch raqami ham nazardan chetda qoldirilmagan. Quyidagi baytlarda uch raqami Xuroson ahli orasidan vafo ko‘tarilgach, yuz ochgan axloqiy tanazzulni ta’kidlashga xizmat qildirilgan:

Vafo azm aylarda bo‘lmish magar
Saxovu muruvvat anga hamsafar.

Bu uch fe’l chiqqach arodin tamom,
Yana bo‘lmish uch fe’l qoyimmaqom.

Vafo yerida zohir o‘lmish nifoq,
Saxo o‘rnida buxl tutmish visoq.

Muruvvatqa bo‘lmish hasad joygir,
Zihi hush el-u mulkati dilpazir.

Sharq adabiyotida Yusuf payg‘ambarning “uch ko‘ylagi” tilga olingan baytlar anchagina. Birinchi ko‘ylak Yusuf (a.s.) akalari tomonidan quduqqa tashlangandan keyin qonga bulangan holda otasi Ya’qub (a.s.)ga keltirilgan. Ikkinchi ko‘ylak Yusufning aybsizligiga va zindondan ozod bo‘lishiga dalil bo‘lgan. Uchinchi ko‘ylak Yusuf (a.s.) ning tirik ekanligini isbotlash maqsadida otasiga yetkazilgan va Ya’qub (a.s.)ning ko‘zlari ochilishiga sabab bo‘lgan. Adabiyotda oshiqning ishqdagi turli holatini tasvirlash maqsadida ana shu uch ko‘ylak ramzidan foydalanilgan. N.ning quyidagi baytlarini o‘qigan kishi o‘sha kuylaklardan birini tasavvur qilishi mumkin:

Ko‘nglagingdinkim topar jon dam-badam
Yusuf isi,
Ey azizim, men ham ul ko‘nglak aro bir tormen.

Yoki:

Habibim ista-yu gulshan aro har dam
gul islarmen,
Meni Yusufdin ayru qildi qonlig‘ ko‘nglagi
xursand.

4 raqami – To‘rt raqami insonning yaratilishi va mavjudligiga daxldor haqiqat sharhiga ham xizmat ettirilgan.

To‘rt unsur qaydidin to chiqmag‘aysen, naf’ emas
Osmoniy to‘rt daftarni tutaykim yod bil.

Misralarda o‘t, suv, tuproq va yel so‘zlari to‘rt unsurni ifodalaydi. Inson komillik martabasiga ko‘tarilishi u-n ana shu to‘rt unsur xususiyatlaridan xalos bo‘lmog‘i lozim. Insonda to‘rt unsurga mos ravishda to‘rt xil mijoz mavjudligi tabobatda qayd etilgan. To‘rt unsur harorat, burudat, rutubat va yubusat kabi to‘rt xususiyatni maydonga keltirgan. Shulardan qon, balg‘am, savdo va safro yuzaga chiqqan.

Tasavvufda “to‘rt ano”, “to‘rt ato” – chor padar xususida ham so‘z yuritilganligi ma’lum. So‘fiylar ruhoniy jihatdan ruhi Muhammadiyani, jismoniy tomondan Hazrati Odamni, rasullik sifatining ilk sohibi bo‘lganligi ma’nosida Hazrati Nuhni, birinchi bora musulmon deb atalganligi u-n islom nuqtayi nazaridan Hazrati Ibrohimni ota deb qabul qilganlar. Sharq she’riyatida to‘rt unsur, to‘rt daftar b-n bir qatorda to‘rt mazhab, to‘rt anhor, to‘rt rahbar kabi iboralar ham ishlatiladi. Islomdagi to‘rt mazhabdan biri hanafiy, ikkinchisi shofiiy, uchinchisi hanbaliy va oxirgisi molikiy deyilgan. Sayri suluk yo‘liga kirgan oshiqlar bu to‘rt mazhabdan birini qabul qilish b-n birga ulardan tashqarida “ishq mazhabi” ham mavjud, deb bilganlar. Ular ishq mazhabini o‘ziga xos “din”, deb anglaganliklari bois ham shoirlar “Ey oshiqlar, ey oshiqlar, ishq mazhabi dindur manga”, – kabi misralarni bitishgan. Makkor va nifoqchi, “jahon zoli”dan voz kechish xususida esa shunday xulosa bayon etilgan:

Jahon zoli ham makr etar, ham nifoq,
Ani to‘rt mazhabda qil uch taloq.

Boshqa bir g‘azalda shoir go‘yo “to‘rt mazhab”da ham “dahr zolini” “uch taloq” etishga musharraf bo‘lganligini so‘zlaydi:

Dahr zolin to‘rt mazhab birla qildim uch taloq,
Fard qildi bori mundoq kadxudoliqdin meni.

She’riyatda jannatdagi to‘rt ariq haqida ham fikrlar bayon qilingan. Jannat va jannatdagi ariqlar xususida Qur’oni Karimda ham aytilgan. Muhammad (s.a.v.) me’roj kechasi to‘rt ariqni ko‘rganlar va uning oq marvariddan bino bo‘lgan ulkan gumbaz ichidan chiqishiga, uning devorlarida “Bismillohir Rahmon ar-Rahim” so‘zlari bitilgan bo‘lib, to‘rt irmoqning manbasi shu ekanligiga ham guvoh bo‘lganlar.

To‘rt irmoq yoki to‘rt ariq haqidagi diniy fikr-qarashlarga asoslanib, N. insonning real bir holatini ko‘rsatishga erishgan.

Har ko‘zumdin goh su, gah qon oqar ko‘yung aro,
To‘rt ariq oqqan masallik ravzayi rizvonda su.

To‘rt ariq yoki anhori arba’ deyilganda hamma vaqt ham jannatdagi to‘rt irmoq, ya’ni ariq tushunilmagan. Chunki tasavvuf ahli bu iborani yangi ma’no b-n boyitgan. Ularga ko‘ra, anhori arba’ ayni paytda to‘rt turli ilm mazmuniga ham ega. Bulardan 1-kasbiy ilm, uning timsoli suv, 2-fitriy ilm, ramzi sut, 3-hol ilmi, uning ramzi sharob va 4-ilmi haqiqati zavqiya bo‘lib, uning timsoli bol. Mutasavvif shoirlarning sharob ta’rifidagi she’rlarida ilmi hol sirlari tavsif-u talqin qilingan. Mutasavvif shoirlar ijodida tasavvufda belgilangan to‘rt bosqich nomlari tilga olingan misralar talaygina. N. salaflaridan farqli ravishda bu tushunchaga nisbatan “to‘rt bozor”, “ishq mulkining to‘rt bozori” iboralarini qo‘llagan. “To‘rt bozor” Shariat, Tariqat, Ma’rifat va Haqiqatning ramziy ma’nolari bo‘lib, ular ham talmehga aylangan. N.ning bir qancha baytlari buning misoli bo‘la oladi:

Jurm aning ishqidin o‘zga yo‘qki,
har dam kezdurur,
Ishqi mulki to‘rt bozorida bo‘ynum bog‘latib...

Balki bo‘ynum bog‘labon, ushshoq ibrat olg‘ali
Ishq mulki to‘rt bozorida sudrab kezdurung.

5 raqami – bu raqamning an’anaviylashuvi hamda she’riyatdan joy olishining turli asoslari bor. Turkiy xalqlar osmondagi beshta yoritkichni alohida nomlab, timsollashtirganlar. “Kavokibi mutahayyira” – ruju’ va istiqomat (sayr) qiluvchi bu sayyoralar: Mirrix – jang va urush timsoli, jangchilar homiysi; Utorud – shoir va yozuvchilar homiysi; Mushtariy – falak qozisi, ilohiy qudrat nizomlariga ko‘ra jamiki mavjudot ustidan hukm yurituvchi; Zuhra – osmon cholg‘uchisi, sozandasi; Zuhal – insonlar boshiga balo-ofat yog‘diruvchidir. XIII asrda yaratilgan “Solnoma”da esa haftaning besh kuni yana shu besh sayyoraga taalluqli ekanligi qayd etilgan. Chunonchi, seshanba – Mirrixga, chorshanba – Utorudga, payshanba – Mushtariyga, juma – Zuhraga, shanba – Zuhalga.

“Besh kunlik dunyo”, “Insonning umri besh kunlik” kabi iboralarda tugallanish, nihoyasiga yetish ma’nolari anglashiladi:

Navoiyyo, bu o‘tar olam ichra besh kun qil
O‘zungni may bila mashg‘ul-u ishq birla ovut.

Yoki:

Kecha-kunduz qilma gulbongingni bas,
ey andalib
Kim, sanga besh kun bu gulshan ichra
mehmon bo‘ldi gul.

Sharq she’riyati sinchiklab ko‘zdan kechirilsa, qalb, ruh, sir haqida so‘zlamagan, turli kayfiyat va holatda shularga ta’rif va tavsif bermagan shoirni uchratish juda qiyindir. Mabodo buning sababi va asosi o‘rganilsa, bular bevosita “latoyifi xamsa” tushunchasiga borib taqalishi ayonlashadi. Latoyifi xamsa – besh latiflik: insonga oid manfuh ruhning besh tavri, deganidir. Bu besh

latiflikning birinchisi – Qalb, ikkinchisi – Ruh, uchinchisi – Sir, to‘rtinchisi – Xafi va beshinchisi – Ahfodir. Bularning barchasi amr olamiga mansub. Xalq olamiga tegishli “nafs” latifasi ham bor bo‘lib, ular bir-birining ichida yashiringan. Keyingisi oldingisiga nisbatan latifroqdir. Har qaysi latiflik payg‘ambarlardan biri erishgan ma’naviy haqiqatlarni aks ettiradi. Qalb latifasi hazrati Odamga, Ruh latifasi hazrati Ibrohimga, Sir latifasi hazrati Musoga, Xafi latifasi hazrati Isoga, Ahfo hazrati Muhammad (s.a.v.)ga nisbat berilgan. Bundan tashqari, bularning har qaysisi o‘ziga xos rangga ega: qalb – qirmizi, ruh – sariq, sir – oq, xafi – qora, ahfo – yashil rangdadir. Demak, latoyifi xamsaga tayanib, ranglarni tasavvur qilish mumkin bo‘lganidek, ranglarga asoslanib, gap qaysi latiflik va unga xos bo‘lgan qanday holat va haqiqat to‘g‘risida borayotganligini ham aniqlashga imkon ochiladi. She’riyat tadqiqi u-n bu juda foydali bo‘lib, taxminiy mulohaza va xulosalarning oldini to‘sishga yaqindan yordam beradi. Musulmonlar orasida tez-tez tilga olinadigan “Oli abo” yoki “Ahli bayt” iborasi ham she’riyatdan o‘rin olgan. Hayoti o‘rnak va namuna bo‘lgan bu besh kishining birinchisi Muhammad (s.a.v.), qizlari Bibi Fotima, kuyovlari Hazrati Ali va uning o‘g‘illari Hasan hamda Husaynlardir.

Garchi raqibi muddayi har dam xorijliq qilur,
Hamroh-u hamdam, himmati oli abo
bo‘lsun sanga.

“Oli abo”ni Muhammad (s.a.v.)ning eng yaqin do‘stlari va haqiqiy izdoshlari bo‘lgan to‘rt xalifa – hazrati Abu Bakr, hazrati Umar, hazrati Usmon va hazrati Ali, deb biluvchilar ham bo‘lgan.

Bo‘lmag‘ay erdi muyassar “Xamsa”,
ya’ni panj ganj,
Qilmasa erdi madad holimg‘a besh oli abo.

Bu fikrni “Agar payg‘ambar va to‘rt xalifa madadkor bo‘lmasa, “X.” yozish menga nasib bo‘lmasdi”, – degan mazmunda ham tushunish mumkin. Lekin “oli abo” iborasi ahli dil, ko‘ngil odami, ko‘ngil tilini anglovchi ma’nolarini ham ifodalagan. Shuning u-n N.ning e’tirofida “X.” dostonlarini yozishga ta’sir ko‘rsatgan salaflariga ishora ham yo‘q emas.

7 raqami – Tasavvuf adabiyotida komil inson masalasining yoritilishini to‘g‘ri anglash u-n N. ijodida ancha keng qo‘llanilgan “yetti falak”, “yetti sayyora”, “yetti iqlim”, “yetti daryo”, “yetti tavr”, “yetti ruh”, “yetti nishon” singari o‘nlab iboralar mazmunini to‘g‘ri anglash lozim. Yulduzlar harakatini tekshirgan olimlarning fikriga ko‘ra, har bir inson, hatto hayvon, o‘simlik va ma’dan ham yulduzlarning ta’sirida ulg‘ayadi. Sayyoralarning har biri hissiyot, axloq, tabiat va sog‘likka ta’sir o‘tkazadi. Hatto ularning rang va xususiyatlari ham o‘zaro bir-biridan farqlanadi. Inson bolasi qaysi yulduz ta’siri ostida bo‘lsa, qismati ham shunga qarab voqe: bo‘lishi qayd etilgan. Quyoshdan yuqorida bo‘lgan Zuhal, Mushtariy va Mirrixga nujum ahli afloki salosayi ulviya, Quyoshdan pastdagi Zuhro b-n Utorudga afloki sufliyyun, deb nom berishgan. Bularning beshalasiga esa “xamsayi mutahayyira” deyilgan. Agar bularga Oy va Quyosh ham qo‘shilsa, Sab’ai sayyora nihoyasiga yetadi, deb hisoblangan. Bu yetti sayyoraga “Kavokibi sab’ai sayyora”, “Haft oyna” yoki “Haft bonu” nomlari berilganki, bu xususda N. dostonlarida ham bahs yuritgan.

Yetti charx avroqi to‘lg‘ay, yetti bahr o‘lsa
midod,
Ul quyosh vaslig‘a bir damliq xayolimni desam.

Yoki:

Jinsi bashar yo‘q ogahing, xurshid
xoki dargahing,
Ko‘k mahd aro tifli rahing yetti ato-yu to‘rt ano.

N. samoviy olam, jumladan, yetti ko‘k xususida so‘z yuritganda hamma payt ham jismoniy

mavjudliklarni emas, balki insonga nisbat berilgan ramz va majoz orqali komil inson mohiyatini yoritishga qaratilgan fikr-mulohazalarga ham diqqatni jalb etishgan. Bunga esa mavjud olamda bor hamma narsa odamda ham bor, komil inson faqat yerdagi emas, samodagi barcha narsalarni ham o‘zida jamlagan, degan ishonch keng yo‘l ochgan. N.ning yuqoridagi misralarda “yetti ato” yetti ko‘kni, “to‘rt ano” to‘rt unsurni anglatadi.

9 raqami – juda keng va xilma-xil ma’nolar singdirilgan raqamlardan biridir. N. to‘qqiz raqamiga murojaat qilganda, bu raqamning xalqimiz tarixi, urf-odatlari, an’analarida tutgan o‘rniga, diniy mifologik qarashlarda, shuningdek, tasavvuf ta’limoti hamda adabiyotidagi ramz va ma’nolariga ham e’tibor qaratgan.

Prof. A.Abdug‘afurov “G‘.S.” devonidagi “Tiyradur o‘ylakim yorug‘lig‘ anga bermas yuz” misrasi b-n boshlanuvchi g‘azaldagi to‘qqiz so‘zining izohida “Abushqa”ga murojaat etib, undagi shunday fikrlarga diqqatni jalb etadi: “Ammo chig‘atoy toifasining bir odatlari bordurki, u ma’noyi ash’or u-n “G‘.S.”da bir bayt kelur:

G‘am g‘izosi orasinda qani turkona ayog‘,
To‘ra oyini bila tomsa to‘quz, oqsa o‘tuz.

Ul odat budurki, suhbatda qadahdan bir tomla (tomchi) to‘kulsa, to‘qqiz qadah ichurlar, agar bir qadah to‘kilsa – o‘ttuz qadah ichurlar. Va bu ma’ni dog‘i bukim, agar banim qadahimdin tomila tomilsa – to‘qqiz qadah ichayin va agar to‘kilib oqsa – o‘tuz qadah ichayin, demakdur. Mast-u bexud bo‘lg‘ondin kinoyadur.

Mug‘anniy, bir navoye tuz, Navoiy,
nag‘maye ko‘rguz,
Ayoqchi, tomsa tut, to‘qquzki
Doroyi jahon keldi.

Va yana “H.A.”da oltinchi maqolat hikoyasi oxirinda kelur:

Soqiy, adab shartini omoda tut,
Ollima to‘qquz yukunub boda tut.
To ani ich, deb senga men yuz tutay,
Tomsa to‘quz, oqsa xud o‘ttuz ichay”.

Xullas, N. to‘qqiz raqamining “imtiyoz” va “imkoniyat”idan foydalanib maqsadga yetishadi. Bu esa to‘qqiz raqamiga doir an’anaviy qarash N. davrida ham unutilmaganligidan dalolat beradi.

Turkiy qavmlar o‘rtasida hurmat-ehtirom, tavoze’ ko‘rsatish maqsadida to‘qqiz marta ta’zim qilish ham odatga aylangan.

Yoto‘g‘onchi-yu yirov tuzgach un,
Sen qadah ol-u to‘quz qotla yukun.

Turkiy xalqlar u-n xos bo‘lgan ushbu odatga N. “S.I.” dostonida yana to‘xtaladi. Iskandar Kashmirda Feruzni shoh qilib ko‘taradi va arkoni davlatni ko‘p emas, oz emas, to‘qqiz marta shohga ta’zim aylab, hurmat bajo keltirishga farmoyish beradi:

Alarni chu mundoq sevundurdilar,
Shah olinda to‘quz yukundurdilar.

N. davrida astronomiya sohasida juda ko‘p izlanishlar olib borilgan va yuqori natijalar qo‘lga kiritilgan. Shoir tabiiy fanlardan va bu sohalarda qo‘lga kiritilgan yutuqlardan boxabar bo‘lgan, albatta. Shuning u-n “shoirning dunyoni tushunishda tabiiy fan yutuqlaridan foydalanishi qonuniy bir hol edi”.

“To‘qqiz gunbad”:

Tut qadah davrini xushkim, yo‘q bajuz
sargashtalik,
Dahr davrida bu to‘qquz gunbadi davvor esa.

“To‘qqiz falak”:

Fitnalik to‘qquz falak girdingda, jono, turfadur,
Kim, ko‘ruptur bir quyosh davrinda
mundoq holalar.

N. bir necha baytlarda “to‘qqiz ato” yoki “to‘qqiz ano” tushunchalariga diqqatni tortadi:

Ato-onangga rahmat, ey o‘g‘ilkim,
ko‘rmamish sendek
Ne ul to‘qquz ato, bal ne bu to‘rt
asrag‘uchi doya.

U 9 osmon b-n aloqador bo‘lgan fikrlarni ilgari surar ekan, olamning yaratilishi, dunyoning paydo bo‘lishi haqidagi diniy qarashlarni ham chetlab o‘tmagan. Diniy e’tiqodlarga ko‘ra, butun olam va undagi barcha mavjudotlar buyuk me’mor – Alloh tomonidan yaratilgan:

Soni’ikim chekti chun sun’i qalam,
Ofarinish tarhini qildi raqam.

Aylagach doyir to‘quz aflokni,
Qosir etti fahmidin idrokni.

Maz.: Yaratuvchi qudrat qalami b-n olamni bunyod etdi. U to‘qqiz falakni aylanuvchi qilib yaratdi va buning sirini hech kimga oshkor qilmadi. Shoir devonlaridagi hamd g‘azallarning birida yetti ko‘k ham, to‘qqiz osmon ham “ilohiy amr”ga tobeligi aytiladi:

Iloho, amringga ma’mur yetti torami a’lo,
Ne yetti torami a’lo, to‘quz sipehri muallo.

“To‘qqiz sipehri muallo” qanchalik yuksak va ulug‘vor bo‘lmasin, baribir Haq dargohiga nisbatan ular kichikdir. Chunki Alloh har narsadan buyuk va ustun:

Ulki to‘qqiz charx ayvoni o‘zun ko‘p ko‘rdi past,
Chun nazar soldi biyik dargohining kiryosig‘a.

“X.”dagi dostonlarning hamd qismlarida, an’anaviy na’tlarda va umuman, “Me’rojnoma”larda falaklar nomi birma-bir tilga olinadi. Shunisi e’tiborga molikki, me’roj hodisasi hikoya qilingan o‘rinlarda falaklarni sanash Oy osmonidan boshlanib, falaki sayyora (harakatlanuvchi)da nihoyasiga yetkazilsa, hamdlarda, aksincha, falaki sayyoradan Oy osmonigacha sanash tartibi ko‘zga tashlanadi. Tasavvuf ta’limotiga ko‘ra, falaklar ruhiy kamolot yo‘lidagi bosqichlardir. Nasafiy har bir falak turli toifadagi kishilar ruhining manzili ekanligini qayd etadi. Unga ko‘ra, 9-osmon, ya’ni Arsh – payg‘ambari xotam ruhining manzili, 8-osmon – ulul-azm payg‘ambarlar ruhining manzili. 7-osmon – mursal payg‘ambarlar, 6-osmon – anbiyolar, 5-osmon – avliyolar, 4-osmon – ilmi ma’rifat ahli, 3-osmon – zohidlar, 2-osmon – taqvo ahli, 1-osmon – imonlilar ruhining manzilidir.

Ruh o‘z Rabbisini tanish va unga intilish asnosida yuqoriga qarab taraqqiy etadi. Bir paytlar falaklar bo‘ylab yerga tushirilgan inson ruhi “bu yo‘lni qaytadan bosib o‘tib, asliga qaytishi lozim”. Qur’ondagi “Ular Allohdan keldilar va yana Allohga qaytadilar” oyatidagi inish-yuksalish tushunchalarini mutasavviflar qavsi nuzul, qavsi uruj shaklida izohlaydilar. Tanazzul maqomida inson ruhi yuqoridan pastga qarab harakatda bo‘lsa, taraqqiy maqomidagi harakat quyidan yuqoriga tomon bo‘ladi. Boshlang‘ich va oxirgi nuqta bitta bo‘lib, u ahadiyat maqomi hisoblanadi. Ruhning bunday maqom-manzillardagi sayrini N. ko‘p bora qalamga olgan. “N.SH.” devonidan o‘rin olgan:

Ko‘k binafshazorini anjum chu nargiszor etar,
Nargising birla binafshang hajri
ko‘nglum zor etar,–

bayti b-n boshlanuvchi g‘azalda “oshiq ruhi”ning yuqoridan pastga harakati tasvirlangan bo‘lsa, “S.S.” dostonida ilohiy visolga yetishgan inson harakati pastdan yuqoriga tomon yo‘nalgan. Bunday tasvirni “X.” asarining boshqa dostonlarida ham ko‘rish mumkin. N. asarlarida to‘qqiz yoki yetti falakning ikki xil tartibda berilishi tasodif emas, albatta. Bu tasavvuf ta’limotida mavjud bo‘lgan nuzul va uruj tushunchalari b-n bog‘liq.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик,*

2-жилд. – Т., 2011; Ҳаққул И. Навоий ва тасаввуф шеърияти ҳақида // Навоийнинг ижод олами. – Т., 2001; Нажмиддин Кубро. Тасаввуфий ҳаёт. – Т., 2004; Али Қушчи. Астрономияга оид рисола. – Т., 1968; Абу Али ибн Сино. Тиб қонунлари. 1-жилд. – Т., 1991; Комилов Н. Тасаввуф. 2-китоб. – Т., 1999; Адҳам Жабажи ўғли. Тасаввуф терминлари ва иборалари луғати. – Анқара, 1977; Азизиддин Насафий. Инсони комил. – Истанбул, 1990; Маҳмуд Кошғарий. Девони луғатит турк. – Т., 1963; Абдуғафуров А. Тўра ойини била...// Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 2001. 2-сон; Насафий. Зубдат ут-ҳақойиқ. – Т., 1987.

S.J.

RAQIM – “T.A.H.” asarida tilga olgan g‘or nomi. N. mazkur g‘or haqida kitobning “As’hobi kahf va ba’zi mutafarriq axbor” zikrida qisqa tushuntirish bergan.

***Ad**.: Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

B.R.

RAHBAR (f.) – yo‘l ko‘rsatuvchi, ustoz, pir, murshid. N. asarlarida Haq yo‘lni ko‘rsatuvchi yo‘lboshchilar turli nomlar b-n keladi. R. shulardan biridir. M-n:

Men ozibmen yo‘ldin-u bas tiyradur hijron tuni,
Toli’ o‘l, ey kavkabi iqbol-u, bo‘lg‘il rahbarim.

N.ning ustozi Sayid Hasan Ardasher yozgan maktubida shunday murojaati keladi:

Faqr manzillarining rahravi bal rahbari,
Hodiyi ahli fano murshidi ahror qani?

***Ad.:** Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005.*

Z.R.

RAXMATULLAYEVA M. (1933–2006, Toshkent) – f.f.n. 1965-y. “Alisher Navoiy asarlarida sinonimlar” (“Navodir un-nihoya asosida”) mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan. Olima o‘z ishida N.ning sinonimlardan ustalik b-n foydalanganini ko‘rsatib bergan. Jumladan, yuz so‘zining to‘qqizta ma’nodoshini: yuz–chehra, ruxsor, oraz, uzor, mengiz, eng, siymo, tal’at, liqoni sanab ko‘rsatadi. Olima ularni tahlil qilar ekan, eng va mengiz so‘zlari iste’moldan chiqa boshlaganini, qolganlari esa faollashganini ta’kidlaydi. Ayoqchi, soqiy, mug‘bacha so‘zlari ichida ayoqchi so‘zi kam ishlatilishini yozadi. Shoir mahbuba so‘zining quyidagi ma’nodoshlariga murojaat qilgan: yor, dilbar, dilrabo, dildor, jonon, jon, sanam, sho‘x, pari, nozanin, gul, sarv, lo‘li, nomehribon, jafojo‘, malak, mahvash. Yoki N. rang ma’nosidagi so‘zlarning turli sinonimlaridan foydalangan. Shoir asarlarida qizil so‘zining quyidagi ma’nodoshlari uchraydi: shafaqgun, shingarf, gulnoriy, yoqutfom, lolagun, gulfom, gul-gul, lolagun, gulrang, arg‘uvongun, maygun, qirmizi.

Olima shoirning sinonimlardan foydalanishi sabablarini ham tahlil qilgan va ilmiy xulosalar chiqargan: 1. qaytarishdan qochish; 2. vazn va qofiya talabi bilan; 3. uslubiy rang-baranglikka erishish u-n.

***Ad.:** Рахматуллаева М. К вопросу изучения синонимов в язике Алишера Навои. Автореф. канд. дисс. – Т., 1965.*

E.U.

RAHMATULLOH IBN ABDUSHUKUR – xattot va musavvir (XIX asr oxiri XX asr boshlari). Toshkent shahrida yashab ijod etgan. Bir qancha kitoblarni toshbosmaga ko‘chirgan. O‘zi xattotlik qilgan kitoblarga suratlar ham ishlagan. Mazkur davrda kitoblarga sayqal berishda milliy an’analar bilan birgalikda Yevropa kitob bezash va illyustratsiya ishlash san’ati ham uyg‘unlashib borgan. R.I.A. o‘zbek musavvirlik maktabiga grafika san’atini olib kirgan ilk ijodkorlar-

dan biridir. R.I.A. N. “X.”sining “Nasri Xamsayi benazir” nomi bilan amalga oshirilgan nasriy bayonini toshbosmaga ko‘chirgan. Musavvir sifatida kitob sahifalariga naqshinkor bezaklar bilan ishlov bergan, dostonlar mazmunidan kelib chiqqan holda qirqdan ziyod surat ishlagan. Bu haqda suratlar chetida, hoshiyalarda “Roqim, tasvirot, faqir al-haqir Rahmatulloh ibn Mullo Abdushukur”, Roqim, tasvirot Rahmatulloh ibn Mullo Abdushukur shahri Toshkandiy” tarzida qayd etib borgan.

Ad.: *Абдуллаев Н. Ўзбекистон санъати. 2001; Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. 1991; Тожибоева О. “Хамса” табдилларида давр руҳи. 2015.*

O.T.

RAHMONOV Vahob (1940, – Tojikiston, Xo‘jand) – manbashunos, matnshunos, adabiyotshunos, tarjimon. U “Xalq ta’limi a’lochisi” ko‘krak nishoni, Xalqaro Bobur mukofoti laureati hamda O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi unvoni sohibidir. “Sa’diy Sheroziy “Guliston”ining o‘zbekcha tarjimalari” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan (1968). R.V. serqirra olim sifatida mumtoz poetika, leksikografiya, navoiyshunoslik va bobur shunoslik sohalarida birdek qalam tebratib, “She’r san’atlari”, “Badiiy san’at jozibasi”, “Badiiy san’atlar” kitoblar yaratgan. Leksikografiya yo‘nalishidagi unumli faoliyati natijasi o‘laroq “O‘zbek klassik adabiyoti uchun qisqacha lug‘at”; “Adabiy manbalar lug‘ati”larini sanash mumkin. Shuningdek, “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati” to‘rt jildligi (1983–1985, “Fan” nashriyoti)ni tuzishda qatnashgan.

R.V. manbashunoslik va matnshunoslik bo‘yicha yirik mutaxassis bo‘lib, N.ning “L.T.” (1991, 2005, 2009), “H.A.”, “F.Sh.”, “L.M.”, “S.S.”, “S.I.” dostonlarini arab yozuvidan joriy lotin alifbosiga o‘girib, nashrga tayyorlagan. Shu b-n birga, mumtoz adabiy matnlarni tabdil qilishda katta tajribaga ega olim N.ning “M.L.” risolasi, “L.M.” dostonini (N.Norqulov bilan hamkorlikda) nasriy bayon qilgan (1976, 2006, 2009). Olim N. qalamiga mansub “Xamsa” va “L.T.” dostonlarining ilmiy-tanqidiy matnini nashrga tayyorlab, 2006–2009-yy.da 2 marotaba chop ettirgan. R.V.ning “Mumtoz so‘z sehri” kitobi uning turli yillarda matbuot sahifalarida e’lon qilingan va shaxsiy arxivida saqlanayotgan maqolalaridan iborat to‘plam bo‘lib, aksar qismi N. va n.shunoslikka doir dolrazb masalalarni qamrab olgani b-n ahamiyatlidir.

U o‘zbek mumtoz adabiyoti asarlarining ellikdan ortiq namunalariga mas’ul muharrirlik qilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. – T., 2014; Раҳмонов В. Ўзбек классик адабиёти асарлари учун қисқача луғат. – T., 1983; Раҳмонов В. Мумтоз адабий манбалар луғати. – T., 2009; Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. (Н.Норқулов билан ҳамкорликда). – T., 1976, 1990, 2006, 2009; Раҳмонов В. Мумтоз сўз сеҳри. – T., 2015.*

O.F., S.O‘.

RAHMONOVA Zulayho Jamolovna (1975-y. Buxoro) – adabiyotshunos. 1992–1997-yy.da Buxoro davlat universiteti O‘zbek filologiyasi fakultetida tahsil olgan. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD, 2020), katta ilmiy xodim (2022). Ayni paytda O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutida katta ilmiy xodim lavozimida faoliyat yuritadi.

2020-y.da “XII–XV asrlar o‘zbek mumtoz adabiyotida murshid va murid obrazlari” mavzusida doktorlik (PhD) dissertatsiyasini himoya qilgan. “Ishq, irfon va irshod” (2021) nomli monografiyasi nashr etilgan. Mazkur kitobda murshid va murid obrazining g‘oyaviy-badiiy asoslari, murshid va murid munosabatidagi o‘ziga

xosliklar, mazkur obrazlarning mohiyat hamda takomili N. asarlari asosida yoritilgan. Murshid va unga yondosh bobo, er, eran, pir, rahnamo, soqiy kabi timsollarning badiiy adabiyotdagi ifodasi hamda o‘rnini ko‘rsatishda shoir asarlariga tayanilgan. Muridda kechadigan ma’naviy hollar lirik merosi orqali ochib berilsa, tariqatdagi hol va maqomlarning ilmiy-nazariy asoslari “N.M.”, “M.Q.” asarlari vositasida ko‘rsatilgan. Matbuotda N. hayoti va ijodi, n.shunoslik masalariga oid 50 yaqin maqolalari e’lon qilingan. “Alisher Navoiy ensiklopediyasi”ning mualliflaridan biri.

Ad.: *Раҳмонова З. Ишқ, ирфон ва иршод. – T., 2021.*

M.A.

RAHNAVARD – yo‘l yuruvchi, yo‘lovchi, sayohatchi ma’nolaridagi forsiy kalima. Bu so‘z N. asarlarida ko‘proq Haq yo‘lchilariga, tariqat muridlariga nisbatan qo‘llaniladi. “L.T.” dostonida Xoja Porsoga bag‘ishlangan hikoyatda:

Olti yuz ming rahnavardi haqshunos,
Xojag‘a ko‘rguzdilar bu iltimos, –

bayti keltiriladi. N. Haq yo‘lida insof-u adolat bilan nafsini tarbiyalayotgan riyozat ahlini R.i haqshunos deb ataydi. “L.T.” dostonida faqr-u fano manziliga otlangan turli qushlarga R. deya murojaat qilinadi.

Shayx oni ko‘rgach dedi: – “K-ey, rahnavard,
Vasl istab vodiy-u dargahnavard…

Shayx yo‘lovchi, tolibga R. deya murojaat qilsa, Simurg‘ni izlab yo‘lga otlangan qushlardan biri Hudhudni R. deb ataydi:

Yona bir soyil dedi: – “K-ey rahnavard,
G‘ayrdin men bo‘lmisham ozod-u fard…

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

Z.R.

REFREN (fr. refrain – naqarot, qo‘shiqcha) – she’r bandlarida aynan takrorlanadigan misra yoxud bayt. R. yozma adabiyotga folklordan o‘tgan bo‘lib, u o‘zbek xalq og‘zaki ijodi – (doston, qo‘shiq, termalar)da keng qo‘llanilgan. R. mumtoz she’riyatimizdagi tarje’ san’atiga to‘g‘ri keladi. A.Husayniy Rashididdin Votvotga tayanib yozishicha, “Ajam shuarosi tarji’ deb andoq she’rni atarlarkim, band-band qilib ayturlar, har bandi besh bayt yoki andin ortiq bo‘lur, to o‘ng‘acha borur, har bandning qofiyasi o‘zga bandnikidan farq qilur, har band tugaganda bir begona baytni keltirib, o‘zga bandga o‘tarlar va ul begona baytni tarji’band derlar”. M-n, N.ning “Ketur soqiy, ul mayki, subhi alast” misrasi b-n boshlanadigan mashhur tarji’bandi R.ning yorqin namunasidir. Bunda band oxiridagi ikki misra (“Xarobot aro kirdim oshuftahol, May istarga ilgimda sing‘an safol”) R. sanaladi va 10 bandli tarji’bandning har bandida aynan takrorlanadi. Adabiyotshunoslikda bandlarni bir-biri b-n bog‘lab turadigan takrorlanuvchi bayt vosila yoki sariband deb ham ataladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Ҳусайний А. Бадойиъ ус-санойиъ (Аруз вазни ва бадиий воситалар ҳақида). (Форс тилидан А.Рустамов таржимаси). – Т., 1981; Асадов М. Соқийнома: тарих ва поэтика. – Т., 2020.*

S.O‘.

RIDO – shayxlar, darveshlar yelkasiga tashlab yuradigan yopinchiq. Tasavvufiy lug‘atlarda Haq sifatlarining qul suratida zuhur etishi ma’nosida ham izohlangan. N.ning “N.M.” tazkirasida R. dan bahs etilgan o‘rinlar mavjud: “Jaririy va Abu Ahmad Mag‘oziliy dedilarkim, yahude Ibrohim Ojuriy Sag‘ir (r.t.)ning qoshig‘a keldi va dedikim, agar manga bir nima ko‘rsatsangkim, andin Islom

dini sharafin o‘z millatimg‘a bilsam, musulmon bo‘layin. Ibrohim dedikim, chin aytasen? Ul dedi: chin aytadurmen. Dedi: Ridoni menga ber! Aning ridosin o‘z ridosig‘a chirmab, doshliq o‘tg‘a tashladi va aning keynicha doshqa kirib, olib chiqdi. Aning ridosig‘a o‘tdin osib tegmaydur erdi va yahudiyning ridosi aning ichinda kuyub erdi. Yahud bu ishni ko‘rgach, musulmon bo‘ldi”.

R. timsoli N. she‘riyatida zohirparastlik, riyokorlik mazmunlarini yuzaga chiqarish maqsadida ham qo‘llangan:

Bo‘lmayin dayri fano xammori,
gar qilsam badal,
Zohidi xudbin ridosin bodapoloyim bila.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

Z.R.

RIYO Charlz Per Genri (Charles Pierre Henri Rieu) (1820, Jeneva – 1902, London) – shvetsariyalik sharqshunos. U dastlab Jeneva akademik universiteti, so‘ngra Bonn universitetida tahsil oldi va sanskrit tilini o‘rgandi, shuningdek, nemis, arab, fors, turkiy tillarni o‘zlashtirdi. Arab shoiri Abul Ala hayoti, ijodi manbalari asosida nomzodlik ishini himoya qiladi (Bonn, 1843). “Osiyo jamiyati” a’zosi (1844). Sankt-Peterburgda nemis tilida sanskrit lug‘ati matnini tayyorlash jarayonida Bodlean kutubxonasidagi noyob manbani olish u-n Oksfordga boradi va 1847-y.dan Britaniya muzeyida Sharq qo‘lyozmalari bo‘limiga ishga kiradi. London va Kembrijda ishlaydi. 20 yillik muzeydagi faoliyati davomida Sharq qo‘lyozmalarini kataloglashtirdi va ilk marta ularni tartibga soldi. R.Ch.P.G Sharq adabiyoti manbalarini jamlagan “Fors qo‘lyozmalari katalogi” (4-jild, 1879–95) va “Turkiy qo‘lyozmalar katalogi” (1888)ni tuzadi. N. asarlari tavsifi ularning har ikkisidan ham o‘rin olgan. Jumladan, olim “Turkiy qo‘lyozmalar katalogi”ning “Turkiylar yoki Sharqiy turklar” (263 – 302) nomli oltinchi qismida Britaniya muzeyidagi N. asarlarining barcha manbalarini to‘liq tavsiflab chiqqan. “M.N.” tavsifida N.ning turkiy she’riyatda tengi yo‘q ekani, tarjimayi holi bayon qilinadi. Shuningdek, “N.M.”, “M.Q.”, “X.” kabi asarlarning yozilish sabablari, vaqti, tarixiy sharoit va shaxslar, asar mazmuni, xorijdagi tarjimalari va nashrlari kabi qimmatli ma’lumotlarni ham berib o‘tgan. Umuman, R.Ch.P.G Sharq adabiyoti bilimdoni sifatida N. ijodi manbalarini XIX asrdayoq kataloglashtirgan va ingliz tilida izohlari b-n dunyoga tanitishda katta hissa qo‘shgan olimdir. Mazkur to‘plamlar N. asarlarining Angliyadagi manbalari haqida ma’lumot berishi jihatidan ham muhim.

Ad.: *Charles Rieu. Catalogue of the Turkish Manusripts in the British Museum. – London, 1888; Catalogue of the Persian Manuscripts in the British Museum. – London, 1895.*

O.T.

“RIYOIY KA’BADIN DAYRI FANOG‘A...” – N.ning “B.V.” devonidan o‘rin olgan qit’asi:

Riyoiy Ka’badin dayri fanog‘a
Kirib, gar butqa zohir qildim imon.

Meni yozg‘urma, ey shayxi riyoiy,
Men gar kofir edim, bo‘ldim musulmon.

N. bu qit’ani qarilik chog‘larida yozgan. Ushbu qit’ani yozishdan ko‘zlangan niyat – riyoni qoralash, riyo ahliga munosabat bildirish. Riyo – ikkiyuzlamachilik, yolg‘onni rost ko‘rsatishga urinish, nosamimiylik, u yoki bu moddiy manfaat u-n makkorlik qilish. Riyo barcha yaxshi va go‘zal fazilatlarning kushandasidir. Riyo joy topgan yurakda, albatta, hasad va xusumat bo‘ladi. Riyo har qanday odamni munofiqlikka yon berishga, to‘g‘rilikdan yiroqlashib, aldov va munofiqlik yo‘liga kirishga majbur etadi. Qaysi joydaki, odamlar o‘rtasida ixtilof,

kelishmovchilik, ishonchsizlik, manmanlik va bo‘hton bosh ko‘tarsa, o‘sha yerda riyo bor. Allohning rasuli riyoni “yashirin shirk” deb baholagan ekanlar. Zero, riyo va din, riyo va imon bir-biriga mutlaqo qarshi tushunchalardir. So‘zida, amalida va holida riyo aralashgan kimsalarning tili diliga, zohiri botiniga hech qachon muvofiq kelmaydi. Ana shuning u-n malomatiylar ibodatni, zuhd va taqvoni yoki boshqa ijobiy hollarni ko‘z-ko‘z qilmasdan riyoni bilish va riyoga qarshi kurashishga da’vat etganlar. Ularga ko‘ra, inson riyoning har qanday turini tomiridan quritib, ixlos sohibi maqomiga ko‘tarilmaguncha diniy hayotda hech narsaga erisha olmaydi. Erishganda ham mahdudlik va zohirparastlikdan nariga o‘tmaydi.

N.ning qit’asi “Riyoiy Ka’badin...”, degan ibora b-n boshlanadi. Ochig‘ini aytganda, bu ibora bir qadar g‘alati eshitiladi. Chunki Ka’ba muqaddas dargoh. Qur’oni Karimda aytilganidek, “Albatta, odamlar ibodat qilishlari u-n qurilgan birinchi uy Makkadagi Muborak va butun olamlar u-n hidoyat (mayog‘i) bo‘lgan Ka’badurki, unda maqomi Ibrohim (ya’ni, Ka’bani qurishda Ibrohim (a.s) oyoqlari ostida bo‘lgan xarsang tosh, u toshdan hanuzgacha Ibrohim payg‘ambarning oyoq izlari ketmagan) va unga kirgan odam har qanday xavf-xatardan omon bo‘lishi (kabi) ochiq oyat-alomatlar bordir...” (Oli Imron: 96–97). Riyo va riyokorlik sidq va ixlosni ochiq inkor etmaydi. Aksincha, eng muqaddas tuyg‘u va tushunchalar nomi b-n ish yuritadi.

Chin musulmonga nisbatan riyo ahlining Ka’ba ziyoratiga intilishi balki ustunroq bo‘lishi ham mumkin. Biroq bundan hech foyda chiqmaydi. N. xuddi shu holatni inobatga olib va xuddi shunday toifadagi kimsalarga qarata “Riyoiy Ka’badin” qochib, “dayri fanog‘a” kirib “but”ga sig‘inganligini so‘zlaydi. Xo‘sh, bu gapni qanday qabul etish kerak: butparastlik ma’nosidami? Yo‘q, albatta.

Dayr so‘zi bir necha ma’noni bildiradi. Bular: butxona, mayxona, zoviya, insonlik olami; orif va avliyolar to‘planadigan joy. “Dayri fano” – o‘zlikdan kechganlar olami. Unda “but”dan murod nima? But so‘zining lug‘aviy ma’nosi – sanam. Bu so‘z sevgili, ma’shuq, matlub mazmunida ham qo‘llanilgan bo‘lib, futuvvat ahli “fato” (yigit)ni butchiroq, ishq jamoasi oshiqni butparast o‘laroq qabul etganlar. Tasavvufda esa but – bu vahdat, ilmi ilohiyga ortiq darajada ishtiyoq sezgan orifning ko‘ngli demak. Shunday qilib, N. riyodan din va iymonni ajrata olmaganlarga komil orifning ma’rifatini qarshi qo‘ymoqda. Shoirning ishonch-e’tirofiga ko‘ra, agar inson oriflik yo‘lini tanlasa, orifi komilning ko‘ngil nuridan fayz olsa, u garchi kofir esa-da, musulmon bo‘lishi shubhasizdir. Bunday holatda hatto riyokor shayxning yozg‘irishidan ham hech qanday ziyon etmaydi:

Meni yozg‘urma, ey shayxi riyoiy,
Men gar kofir edim, bo‘ldim musulmon.

Riyo aralashgan hech bir ishda xolislik bo‘lmaydi. Riyo dunyo ishlarini chigallashtiradi, odamlarni bilib, ko‘rib turib bir-biriga yolg‘on so‘zlashga, bir-birini aldashga ilhomlantiradi. Mana shu u-n ham riyoning shakl-shamoyili va sirlarini bilish, eng xavfli dushman sifatida har kim unga qarshi kurasha olmog‘i kerak. Malomatiylar o‘zining qilgan ishlariga e’tiborni tortgan kimsani g‘ofil, qilgan ishlaridan qanoatlangan yoki quvonganni riyokor, deb baholashgan. Shu bois Boyazid Bistomiy “Insonlar ichida Alloh bilan orasida eng qalin parda tortilgan kimsalar uchdir: ilmi tufayli olim, ibodati bois obid, zuhdi tufayli zohid da’vosida bo‘lganlar”, – deydi. “Riyoiy Ka’ba” ichida dimiqib qolmaslik u-n ham buni anglash lozim.

Ad.: *Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик, 3-жилд. – Т., 2011.*

I.H.

RIYOZIY SAMARQANDIY – (t.y.n., Samarqand – 1479–80. Ismi Imomiddin) shoir, olim

va xattot. R.S. haqidagi ma'lumotlar bizga "M.N." orqali yetib kelgan. N. R.S. b-n 1465–1469-yy. orasida tanishgan. R.S. yosh jihatidan N.dan ulug'roq bo'lib, N. uning g'azalni nihoyatda yaxshi yozishini ("G'azalni bag'oyat xo'b aytur erdi"), ko'p yaxshi fazilatlar egasi ("Jome' ul-fazoyil") hamda gapini ko'p dalillar b-n asoslab bera oladigan ("Muqoviyud-daloyil") kishi bo'lganini, yetti qalam b-n xat yoza olgani, "ham mullo va ham hofiz" bo'lib, yetti qiroat bilan "Qur'on" o'qigani, yaxshi shoir bo'lishi b-n birga katta olim, e'tiborli xattot ham bo'lgani, o'z zamondoshlari orasida e'tibori buyuk ("maoli") ligi, uning u-n fanlarning noravshan nuqtasi yo'q ("Ulum fanida hech namarsa anga majhul qolmas erdi")ligini ta'kidlaydi. R.S.ning musiqa, aruz, falakiyot sohasidagi bilimlariga to'xtaladi: "Ilmi musiqiy va advor va nujum va istihroji ramal va g'ayri zolika hech nimarsadin benasib emas edi". XV asrning ikkinchi yarmida Samarqandda mavjud ilmiy va madaniy muhitning yuksak saviyasini R.S. kabi olimlar belgilaganш shubhasiz. Bu esa N. faoliyatida ham katta rol o'ynagan.

N. "M.N."da R.S. haqida hikoya qilar ekan, ikkovlari orasida yuz bergan bir bayt ustidagi bahs haqida yozadi:

Sitorayest duri go'shi on hilol abro',
Zi ro'yi husn ba xurshed mezanad pahlu.

Tarj.: U hilol qoshlining qulog'idagi inju yulduz bo'lib, husn yuzasidan quyoshga yondoshib turibdi – bayti b-n tanishib, ikki misra bir-biri b-n yaxshi bog'lanishi u-n ularning orasiga "bir "ki" lafzi kerak", – deydi va bu baytni quyidagicha tahrir qiladi:

Zi ro'yi husn duri go'shi on hilol abro',
Sitorayestki, bo moh mezanad pahlu.

Tarj.: Husn yuzasidan ul hilol qoshimning qulog'idagi shunday bir yulduzdirki, oy b-n yondoshib turibdi.

R.S. N. tanqidini qabul qilmaydi. "Faqir soqit bo'ldum. O'z yoronlari taloshtilar ham qabul qilmadi", – deb yozadi N. R.S. devonida bu bayt o'zgarmagan holda bizgacha yetib kelgan. R.S. Samarqandda vafot etgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Абдуллаев В. Навоий ва Самарқанд шоирлари // "Навоий ва адабий таъсир масалалари" тўплами. – Т., 1969.*

Ab.H.

RIZO AHLI – rizo maqomiga o'tib, Haqqa bo'ysungan va undan keladigan hamma narsani mamnuniyat b-n qabul qiladigan va o'zi ham Haqni rozi qilishga ahd qilgan ilm-u axloqda yetuk insonlar, shayx-u so'fiylar, valiy zotlar. O'zlarini Alloh yo'liga bag'ishlagan bu toifani dunyo tashvishlari zarracha qiziqtirmaydi. Ular amalga intilmaydi, mol-davlatga ham berilmaydi. Shuning u-n ham shoir yozadiki, bu toifani do'q-po'pisa b-n ham, o'lim hukmi b-n ham qo'rqitib bo'lmaydi:

Rizo ahlin siyosat tig'idan qo'rqutmag'il, ey shah,
Ki, qatlingdin sening qo'rqarg'a
o'lmaydur gado asru.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011.*

E.O.

RIM (RUM) – qadimda ayrim Sharq mamlakatlarida Rumning, keyinchalik R. imperiyasining keng tarqalgan nomi. R. imperiyasining

bo‘linishidan keyin (mil. IV asr) R. nomi faqat Vizantiyaga nisbatan ishlatilgan. Kichik Osiyo saljuqiylar tomonidan bosib olingan davrda R. tarzida atalgan (shundan Saljuqiylar yoki Ko‘niya sultonligining boshqa nomi – Rum sultonligi olingan). Usmonli turklar Vizantiyani bosib olgach, Bolqon yarim orolidagi viloyat shu nom b-n nomlangan.

N. R. atamasining Rum shaklini istifoda etgan bo‘lib, R. b-n bog‘liq voqea-hodisalar, turlituman kasb-hunar va toifadagi shaxslarga deyarli barcha epik, tarixiy-diniy, ilmiy asarlarida murojaat qilgan, hatto mazkur atamaning paydo bo‘lishi haqida ham to‘xtalgan. Jumladan, “T.A.H.”-da Yofasning 2-farzandi Som tarixini bitar ekan, Somning oltinchi o‘g‘li Sag‘rdan Shom va Rum ismli bolalar tug‘ilgani va ushbu hududlar ularning ismi b-n atala boshlaganiga ishora qiladi. “T.M.A.” asarida esa R.ning kelib chiqishi haqida boshqacharoq yozadi: “Va Ya’qub (a.s.) g‘urbatdin vatang‘a kelgandin so‘ngra, I’ys safar ixtiyor qilib, Rum sori mutavajjih bo‘ldi. Va aning Ismoil (a.s.) qizidinki amuzodasi erdi, besh o‘g‘li bor erdi. Birining oti Rum erdiki, ul mulkni aning oti bila atarlar. Va Rum qaysarlari aning naslidindurlar”.

N. R. istilohiga, bu o‘lkaga alohida qiziqish b-n qaraganini “X.”dagi bosh qahramonlardan biri – Farhodning R. diyoriga safari, u yerda yuz bergan mashaqqatlar tufayli toblanishi, ilm-fanning sir-sinoati yashiringan maskan sifatida tasvirlanishidan ham bilish mumkin. M-n, Iskandar 400 donishmandga yasattirgan ko‘zguga ta’rif berganda, podshohning R.lik ekaniga alohida urg‘u beradi:

Erur Iskandari Rumiy nigori,
Jahon ahlig‘a oning yodgori.

Shoir “S.S.” dostonida shoh Bahromga 2-iqlimdan kelgan savdogar so‘ylab bergan hikoyat qahramoni Zayd Zahhob ham hunarda benazir, aqlli va zakiy muhandis bo‘lib, uning asli R.lik bo‘lgani aytilsa:

Rum aro zargare edi mohir,
Ishi elga quyosh kibi zohir.
Ham hakim erdi, ham muhandisvash,
Goh zarposh edi-yu gah zarkash.

“S.I.” dostonida Iskandarning vatani aynan R. ekanini urg‘ulaydi:

Ki, olamni Iskandar olg‘och tamom
Ki, qildi yana Rum mulkin maqom.

Shuningdek, N.ning “L.T.” asaridagi eng xarakterli qissa – Shayx San’on voqealari aynan R. diyorida kechishi ham diqqatga molik.

N. o‘z asarlarida R. lafzini radif sifatida qo‘llashi ham bejiz bo‘lmay, bunda ijodkorning badiiy mahorati va ko‘zlagan g‘oyasi omuxtalashib, matnda o‘ziga xos ohangdorlikni yuzaga keltirgani ko‘rinadi:

Ki, chiniy ayog‘ birla xoroyi Rum,
Qachonkim urushtursa doroyi Rum.

N. “M.N.” tazkirasida temuriy shahzoda Sulton Iskandar Sheroziyning turkigo‘y shoirligini maxsus ta’kidlarkan, uning R. kalimasi tajnisga olingan tuyug‘ini keltirishi ham kitobxonni mulohazaga undaydi. Zero, shoirlik iqtidori, so‘zni o‘z o‘rnida qo‘llay bilish, nozik didga sohiblik aynan tuyuq janrida yaqqolroq ko‘rinishini N. e’tibordan qochirmagani aniq. Umuman olganda, R. istilohiga aloqador matnlar N.ning keng qamrovli olim, so‘z ustasi, teran tarixnavis bo‘lganini tasdiqlaydi.

Ad.: *Алишер Навоий ТАТ. 10 жилдлик, 1-10-жилдлар. – Т., 2011; ЎзМЭ. 7-жилд. – Т., 2004; Ҳаққул И. Навоийга қайтиш. – Т., 2016.*

S.O‘.

RIND (f.) – mayparast, may ichuvchi, davrani boshqaruvchi kishi, badiiy timsol. R. so‘zi, aslida, forscha bo‘lib, noziktabiat, olifta, beparvo, beg‘am kabi ma’nolarni anglatadi. Mumtoz she’riyatda u, asosan, majoziy ma’noda qo‘llana-

di. “G‘iyos ul-lug‘ot”da R. so‘zining fors tilidagi randa, ya’ni randalamoq so‘zidan kelib chiqqani aytilgan: ”Rind – soxtakorlik, johillikni inkor qiluvchi. U kibru havodan, suratparastlikdan, changu g‘ubordan, taroshaga yaraydigan cho‘plardan xuddi randa qilingandek tekislanadi (tozalanadi)”. So‘fiylarga ko‘ra, R. ishqi ilohiyga va husni Mutlaq visoliga tashna Haq oshig‘idir. N. she’riyatida ham bu obrazning betakror namunalari yaratilgan:

Rindlar sarxayli mendurmen bugun dayr ahlig‘a,
Maykada tufrog‘idin masnad manga basdur sanad.

N. ijodida R. deganda, qo‘lida may kosasini tutgan, bu olamning g‘am-tashvishlarini, o‘tkinchi hoyu-havaslarini bir chekkaga surib qo‘ygan, erta-yu kech mayxo‘rlik b-n mashg‘ul bo‘lgan kishi tushuniladi. Ammo R. ichadigan may ishq sharobi, mayxo‘rlik esa ma’naviy huzur-halovatdir. Shu sababli, “M.Q.”da mutafakkir shoir uni “rindi xarobotiyki, may ichmak bila o‘tar avqoti, hubobdek boda havosi boshida, surohidek bosh qo‘yar yeri sog‘ar qoshida” – deya tavsiflaydi. R.ning qiyofasini mana bunday chizadi: “rasvoliq ko‘yida ayog‘i yalang, boshi xam va badmastlar dastburdidin manglayi zaxliq, qoshi ham...” Ammo R. nafs-u havodan, o‘tkinchi orzu-istaklardan uzilgan (“zamon yaxshi-yamoni bila ishi yo‘q”), ko‘nglini Haqqa, haqiqatga burgan oliyjanob va oliyhimmat kishidir. Ya’ni “nafsi garchi tufroqqa hamdast, himmati ollida falak past”. N. “M.N.”da ham rindona she’r va R. tabiatli shoirlar haqida to‘xtalgan. Shoir “uch yosh bila to‘rt yoshning orasida” o‘rgangan va boshqalarga o‘qib berib, tahsinga sazovor bo‘lgan Qosim Anvorning quyidagi mashhur baytini keltiradi:

Rindemu oshiqemu jahonso‘z-u joma chok,
Bo davlati g‘ami tu zi fikri jahon chi bok.

Tarj.: R.miz, oshiqmiz, jahonni o‘rtovchilar va yoqavayronlarmiz. Seni g‘aming davlati turganda jahonni g‘amini yeyishdan nima foyda?!

N. Mavlono Muhammad Badaxshiy haqida “rindliq tariyqin ul martabag‘a yetkurdikim, mast yo maxmur bosh va oyoq yalang ko‘y va ko‘cha va bozorda yurur erdi”, degan ma’lumotlarni beradi. Hirotlik Mavlono Kavsariy haqida yozar ekan, uning ushbu rindona baytini misol qilib keltiradi:

Muhtasib gar rind boshad dayrro dar vo kunad,
Bahri rindon boda az zeri zamin paydo kunad.

Tarj.: Muhtasib agar R. bo‘lsa, mayxona eshigini ochib qo‘yadi, R.lar u-n yer tagidan bo‘lsa ham may topib beradi.

N. g‘azallarida ba’zan fano bo‘lgan xarobotiy R.dan ustun qo‘yiladi. Shayxning muridlari riyo ahli, mayxona pirining hamsuhbati esa R.lardir, ammo fanoga yuz burgan tolib – solik u-n, albatta, irshod qiluvchi komil ustoz bo‘lishi kerak, deydi shoir:

Shayx ila ahli riyo-u dayr piri birla rind
Kim, fano ichra keraktur pirning irshodi ko‘b.

Ruboiylaridan birida N.ning lirik qahramoni R. kabi mayxonaga (haqiqat izlab murshidi komil huzuriga) borishni qasd etadi:

Masjidqa necha ahli riyodek yetayin,
Yo rind kibi azimati dayr etayin.
Maqsud topilsa yaxshi, yo‘qsa netayin,
Boshimni olib qay sari emdi ketayin?

Ko‘rinadiki, N. ijodida rind qiyofasida ko‘ksi uyg‘oq, tiynati sof, qalbi ezgulik-u ma’rifatga to‘la kamolot sohibi tasvirlangan. Shoir ijodidagi R. obrazining o‘ziga xos ma’no injaliklarini farqlash va anglash matnlarni to‘g‘ri talqin va tahlil qilishga ham yo‘l ochadi.

Ad.: *Алишер Навоий. ТАТ. 10 жилдлик, 1-10-жилдлар – Т., 2011; Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011;*

Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. – Т, 1961; Саййид Жаъфар Сажжодий. Фарҳанги истилоҳот ва таъбироти ирфоний. – Теҳрон, 1370 (ҳ.-ш.); Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. Иборат аз 3 жилд. Жилд 1. – Душанбе, 1987; Очилов Э. Бир ҳовуч дур. – Т., 2011; Асадов М. Соқийнома: тарих ва поэтика. – Т., 2020; Комилов Н. Тасаввуф. – Т., 2015.

M.A.

“RISOLAYI ARUZ” (“Aruz haqida risola”) – Abdurahmon Jomiyning aruz ilmi haqida darslik tarzida yozgan asari. Unda forsiy aruzga oid eng muhim masalalar xususida fikr yuritiladi. Kitob muqaddima va 8 fasldan iborat. Muqaddimada aruzdagi eng kichik birlik bo‘lgan juzv – ruknlar (sababi xafif va sababi saqil, vatadi majmu’ va vatadi mafruq, fosilai sug‘ro va fosilai kubro) haqida ma’lumot beriladi. Asosiy qismda ruknlardan hosil bo‘luvchi 5 asl (aslida ular 8 ta) haqida to‘xtalib o‘tadi: *mafoiylun, foilotun, mustaf’ilun, maf’ulotu, fauvlun*. So‘ng zihof va furu’ (tarmoq)lar borasida so‘z yuritiladi va 45 zihof va 60 furu’ keltiriladi. Keyin doiralar ta’rifi beriladi: ular 4 ta – “Doirayi mo‘talifa” (ramal, hazaj va rajaz bahrlaridan tuzilgan), “Doirayi muxtalifa” (muqtazab, mujtass, munsarih va muzore’ bahrlaridan tuzilgan “Doirayi muntazia” (mushokil, sari’, jadid, qarib va xafif bahrlaridan tuzilgan), “Doirayi muttafiqa” (mutaqorib va mutadorik bahrlaridan tuzilgan). Muallif ta’vil, madid, komil va vofir kabi arab aruziga xos bahrlardan tarkib topgan doiralarga to‘xtalmaydi va buni quyidagicha izohlaydi: “Ajam shoirlari bu besh bahrda jonlarga halovat bag‘ishlovchi she’rlardan ko‘p aytmaganliklari sababli ular mansub bo‘lgan doiralar va furu’larga to‘xtalib o‘tilmadi”. 5-fasldan boshlab bahrlar tasnifiga o‘tilib, 14 ta bahr tavsiflanadi. Shundan keyin vaznlar tahlil qilinadi. Asarda 150 ga yaqin vaznning izohi keltirilgan. “R.A.” o‘zidan keyin yaratilgan ko‘plab asarlar, jumladan, N.ning “M.A.”, Boburning “Muxtasar” asarlari u-n asos bo‘lib xizmat qilgan. U prof. D.Yusupova tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilinib, muxtasar so‘zboshi b-n nashr etilgan.

***Ad.**: Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. ТАТ. 10 жилдлик. 10-жилд. – Т., 2011; Абдураҳмон Жомий. Рисолаи аруз. – Т., 2014.*

E.O.

RITORIK SO‘ROQ – Fikrning javob talab qilinmaydigan so‘roq vositasida ifodalanishi va ta’kidlanishi. Bu uslubiy vosita N. asarlarida ko‘p va o‘z o‘rnida qo‘llangan. R.S.dan foydalanish N.ning lirik she’riyati u-n ham, epik va nasriy asarlari u-n ham xos bo‘lib, xususan, shoir g‘azaliyotida katta o‘rin tutadi. N. g‘azallarida R.S. she’rda ifodalangan poetik fikrni tasdiqlashga va uni kuchaytirishga xizmat qiladi. M-n:

Erur mazlum-u zolim qatli ishq oldida ko‘p oson,
Agar Farhod o‘ldi, qatl topmay qoldimu Parvez?

Yoki:

Qaysi bir tuhmatki bizga qilmadi nisbat raqib,
Qaysi birinkim eshitqach qilmadi bovar habib.

Ma’lumki, mumtoz nasrimizda, shu jumladan, N. nasriy asarlarida ham bayon katta o‘rin tutadi. Bu esa muallifdan bayon tarziga alohida ahamiyat berishni, uning bir xil bo‘lib qolmasligini, ohangi, intonatsiyasini kuchaytiruvchi, o‘zgartiruvchi, umuman, bayon tarzining ranginligini ta’minlovchi omillar va vositalardan foydalanishini taqozo etadi. Ohangning bir xilligi o‘quvchini zeriktiradi, asarning ta’sir kuchini susaytiradi. N. buni yaxshi anglagan va R.S.dan ana shu maqsadda foydalangan. “M.”, “Munj.”, “M.Q.” asarlari yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi. “M.Q.”dan olingan quyidagi misollar diqqatga sazovordir: “Alloh, Alloh! Firoq shomi savodi ne balo dilgir va umrfarso ermish!

Vah, Vah! Visol shomi kushodi ne ajab dilpazir va ruxafzo ermishkim, Haq subhonahu va taolo aning giriftdorlarig‘a najot raqamin surg‘ay va mu-

ning shakarguftorlig‘ig‘a lo ilo nihoya mujdasin yetkurgay!

Bu habis zot-u muncha oroyish, pok eranlar holidin anda namoyish. Hayhot, hayhot, uyat, yuz ming uyat!”

Yuqoridagi parchalarda N. R.S.dan ruhiy kechinmalarning chuqur va ta’sirchan ifodasini yaratishda foydalangan.

***Ad**.: Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Муншаот. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Эргашев Қ. Навоий насрида услубий усуллар ва воситалар // Адабиёт кўзгуси. – Т., 2006; Адабиёт терминлари луғати. – Т., 1977.*

Q.E.

RIQO’ – insho turi. Shaxsiy yozishmalarda qo‘llanilgan. O‘zining jamiyatdagi mavqeyi, maqomiga ko‘ra muallifdan quyi turuvchi shaxslarga yo‘llangan maktublar riqo’ yo‘sinida bitiladi.

Inshoning bu turi N. “M.”ida juda oz. Atigi ikki maktub bu yo‘sinda yozilgan. Ularning biri hajman kichik bo‘lib, nasihat va tanbeh so‘zlaridan iborat. Bu “M.”dagi shaxs nomi ko‘rsatilgan birdan-bir maktubdir. “Mavlono Qosimg‘a so‘z ulkim...” deb boshlanuvchi ushbu R.dagi so‘zlardan shaxsning qandaydir xato, ayb qilgani va N. uni tavba qilishga undayotgani anglashiladi.

“M.”dagi R.larning ikkinchisi ancha mashhur bo‘lib, tadqiqotchilarning diqqatini tortgan. Bu N.ning asrandi farzandiga yozilgan xatdir. Hajman kattagina maktub, bir tomondan, chuqur pafos b-n yozilgani, muallifning qalbidagi hissiyotlarining yuksak badiiy ifodasi ekani, ikkinchi tomondan, ulug‘ shoirning shaxsiy hayoti to‘g‘risida ma’lumot berishi b-n ajralib turadi. N. qalamiga mansub har ikki R. ham xitobiya yo‘sinida bitilgan. Har ikkisida ham fikr qaratilgan shaxsga nisbatan hech qanday takalluf qilinmaydiki, bu mazkur insho turiga xos asosiy xususiyat hisoblanadi.

***Ad**.: Алишер Навоий. Муншаот. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Юсуфий. Бадоеъ ул-иншо; Эргашев Қ. Ўзбек насрида иншо. – Т., 2011.*

Q.E.

ROBIYA AL-ADAVIYA – mashhur so‘fiy ayol. N. R.A.ning shaxsi, islomning ma’rifiy olamidagi yuksak maqomi, o‘rni va o‘zigacha u haqda bitilgan ayrim tarixiy ma’lumotlarga qiziqqan. “H.A.”da R.A.ning sabri, ruhining Allohga yaqinligi, matonati, eng muhimi, Allohni yolg‘iz – farida izlashi, Makka, Madina tomon yolg‘iz, oyoqyalang holda qilgan safari xususida va bu izlanishlari jarayonida ko‘plab malomatlarga tushishi, malomatlardan salomat chiqishi b-n bog‘liq lavha mavjud. N.ning “N.M.” asari so‘ngida 35 nafar so‘fiy, shayx ayollarga qisqa tarzda alohida fiqralar bitilgan. Ular R.A.ga bag‘ishlangan fiqra b-n boshlanadi. Jumladan: “Robiyayi Adaviya (r.t.) “Basra ahlidin erdi. Sufyon Savriy (r.a.) andin masoil so‘rar erdi va aning mav’izot-u duosig‘a rag‘bat ko‘rguzur erdi. Bir kun Sufyon Robiya (q.s.) qoshig‘a kirdi va ilig ko‘tarib dediki, (Allohim, sendan salomatlik so‘rayman). Robiya yig‘ladi. Sufyon so‘rdiki, ne u-n yig‘lading? Robiya dediki, sen meni yig‘latding! Sufyon dedi: Nechuk? Robia dediki, salomat dunyoda aning tarkidadur va sen dunyoga oludasen. Robiya so‘zidurki, har nimaga samarayedur va ma’rifat samarasi yuz Tengriga kelturmakdur. Va ham ul debdurki, oz sidq ila astag‘firulloh demoqlikdan astag‘firulloh deyman”.

***Ad**.: Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011.*

B.R.

“РОДОНАЧАЛЬНИК УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ” – N. tavalludiga 500 yil to‘lishi munosabati b-n N. yubileyi qo‘mitasi rahbarligida M.I.Sheverdin tahriri ostida rus tilida nashr etilgan maqolalar to‘plami. To‘plam rusiyzabon kitobxonlarni N. asarlari, uning hayoti

davri, dunyoqarashi b-n yaqindan tanishtirishga mo‘ljallangan.

To‘plam N. yubileyi qo‘mitasi raisi A.Abdurahmonovning “Alisher Navoiy yubileyi” deb atalgan maqolasi b-n boshlanadi. Unda N.ning yaratgan asarlari; umuminsoniy qarashlari; qomusiy salohiyati, fan, madaniyat, san’at homiysi bo‘lgani; ijodining o‘ta xalqchilligi; yirik davlat arbobi sifatidagi ishlari; shoir o‘z asarlarida adolatsizlikni qattiq tanqid qilgani; N. ijodining ozarbayjon, turkman, qozoq, tatar va boshqa adabiyotlarga ta’siri singari mavzulardan bahs yuritilgan.

To‘plamda A.Borovkov “Alisher Navoiy hayoti va ijodining o‘rganilishi” maqolasi b-n ishtirok etgan. Maqolada N.ning o‘zbek tiliga e’tibori, uning yanada rivojlanishi sohasida ko‘rsatgan jonbozligi, xususan, “M.L.” asarining mohiyati ochib berilgan. Muallif N. ijodi haqida ma’lumot beruvchi lug‘atlarga diqqat qaratgan va N.ni qardosh xalqlar va xorijiy o‘lkalarda o‘rganish masalasiga ham to‘xtalib, ularda mavjud bo‘lgan xatolar (M-n, N. asarlarining nomiga qarab puxta o‘rganmay, tarjima deyilishi)ni qattiq tanqid qiladi. Maqolada N. va Husayn Boyqaro munosabatlariga ham e’tibor berilgan.

To‘plamda rus adabiyotshunosi Y.E.Bertelsning Layli va Majnun haqidagi syujetning tarixi, yozma adabiyotdagi ko‘rinishi va shu mavzudagi N. dostoni haqida bahs yurituvchi “Layli va Majnun” maqolasi berilgan. Maqola 3 qismdan iborat. 1-qismda Layli va Majnun haqidagi syujet arablar o‘rtasida tarqoq rivoyatlardan paydo bo‘lgani, so‘ng “Musulmonlar olami”ga X va XI asrlarda keng tarqalgani, dastlab, shoirlar g‘azalida ularning (Layli va Majnun) nomlari paydo bo‘lishi; bu mavzuda ilk bor Nizomiy Ganjaviy “Layli va Majnun” dostonini yaratganligi aytiladi. Maqolaning 2-qismida Xusrav Dehlaviyning “Majnun-u Laylo” asari, uning Nizomiy Ganjaviy dostoni b-n aloqasi masalasi qiyosiy chog‘ishtirilib, o‘rganilgan. 3-qismda N.ning “L.M.” dostoni keng tahlil qilingan. Y.E.Bertels N.ning “L.M.” asarini Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy dostonlari b-n qiyosiy o‘rgangan. N. tomonidan doston syujetiga kiritilgan qator ahamiyatga molik vaziyatlarni aniqlab, ularning “L.M.” syujetining keyingi rivojlanishiga ko‘rsatgan ijobiy ta’sirini ko‘rsatib beradi va N.ning bu asari tom ma’noda o‘ziga xosligini isbotlaydi.

To‘plamda shoir H.Olimjonning “Farhod va Shirin” dostoni” maqolasi bosilgan. Unda “F.Sh.” dostoni zamirida yotgan afsona, uning tarixi, “Xusrav va Shirin” nomi b-n Sharqda keng tarqalgan syujet haqida fikr yuritiladi. XII asrda Nizomiy Ganjaviy ana shu syujetga murojaat qilib, o‘zining mashhur “Xusrav va Shirin” dostonini yaratishga muyassar bo‘lgani aytiladi. Maqolada Nizomiy tomonidan syujetga kiritilgan detal va obrazlar ko‘rsatilib, Xusrav Dehlaviyning “Xusrav va Shirin” dostoni ham tilga olingan, N.ning “F.Sh.”dostonidagi obraz, voqealar ancha keng tahlilga tortilgan. H.Olimjon tadqiqot so‘ngida asarni “Mehnat haqidagi buyuk doston” deydi.

Uyg‘un “Navoiyning “Chor devon”i maqolasida N.ning tengsiz lirik shoirligi haqida fikr yuritib, uning Hofiz, Sa’diy va Jomiylar qatoridagi ijod ahlidan ekanini alohida ta’kidlaydi. Muallif N.ning “D.F.” asari hamda “Chor devon” tarkibidagi devonlar, ularning janrlariga to‘xtaladi. Devonlarda asosiy o‘rinni g‘azal egallashini alohida uqtirib, ularning mavzu olamini sharhlaydi, ayrimlarini tahlil qiladi. Mazkur ish o‘sha davrlarda “Chor devon” nomi b-n shuhrat topgan “X.M.”, shoir lirik merosi haqida yaratilgan dastlabki maqolalardan biri ekani b-n ahamiyatlidir.

Atoqli folklor darg‘asi H.Zarif “Ruboiy” nomli maqolasida bu janrning N.ijodida tutgan o‘rni, mazkur atamaning lug‘aviy ma’nosini atroflicha yoritadi. Ruboiy qadimdan fors-tojik adabiyotida mavjudligi, uning ildizi tojik folklorida ekanini ta’kidlab, ruboiy 24 vaznda yozilishini N.ning shu janrdagi asarlari misolida asoslaydi.

To‘plamda O.Usmonovning “Muhokamat ul-lug‘atayn” maqolasi berilgan. Unda “M.L.”ning yozilishiga sabab bo‘lgan tarixiy zaruriyat tahlil qilinib, Temur va temuriylar davrida turkiyda bir qator yirik nazmiy asarlar yaratilgani, biroq yuqori

tabaqa vakillari o‘rtasida hamon turkiy tilda “nafis asarlar yaratish mumkin emas”, degan qarashlar mavjudligi; bunday yanglish qarashlarga N.ning salbiy munosabati haqida bahs yuritilgan. Maqolada N. o‘zining ijodi b-n turk tilida badiiy yuksak asarlar yaratish mumkinligini isbot etib berishi hamda bu tilda ijodkorlar tomonidan ko‘proq asarlar yaratishlari zarurligi masalasi bayon etilgan. O.Usmonov N. o‘z ijodi b-n turkiy tilni adabiy til darajasigacha ko‘tarishga harakat qilganini, bundan tashqari, u “M.L.” asarini yaratib, turkiy til b-n fors-tojik tilini muqoyasa qilib, turkiy til o‘zining yetukligi jihatidan fors-tojik tilidan qolishmasligi, hatto, ayrim vaziyatlarda undan ustun ekanligini isbotlab berdi, deydi. Ustoz M.Shayxzoda o‘zining “Navoiy va bizning zamonamiz” maqolasida esa N. ijodini bizning zamonamizdagi ahamiyatini dalillab beradi. Olimga ko‘ra, jahon adabiyoti tarixida o‘zining mashhurligi, boshqa adabiyotlarga salmoqli ta’siri, asarlari soni va g‘oyaviy chuqurligi hamda umuminsoniy g‘oyalarining keng ko‘lami b-n N. qatorida tura oladigan siymolar kam. Shuning u-n N. ijodidagi obrazlar olami, uning she’riyatidagi rang-barang g‘oyalar, bo‘yoqlar, motivlarning o‘ziga xos xususiyatini maxsus urg‘ulaydi. Maqolada N. asarlaridagi qahramonlarning ko‘pchiligi madaniyatli, o‘qimishli, kasb-hunar egasi ekani ta’kidlanib, bu shoirning orzu-istagi bo‘lgani to‘g‘ri ko‘rsatib o‘tilgan.

To‘plamdan o‘rin olgan prof. A.A.Semyonovning “Alisher Navoiy davrida Hirot madaniyati” maqolasi 5 qismdan iborat bo‘lib, unda XV asrdagi adabiyot, madaniyat va san’atga e’tibor berilgan. Maqolaning 1-qismida Hirot tarixi va, ayniqsa, XV asrning 2-yarmiga kelib, Hirot madaniy-adabiy markazga aylanganiga qator dalillar keltiradi. 2 qismida Hirotdagi kolligrafiya san’ati, 3-qismida esa Hirotdagi miniatyura maktabi haqida fikr yuritilgan. Mazkur maktabning bosh siymosi Behzod hayotiga oid ba’zi ma’lumotlar keltirilib, musavvir Mahmud Muzahhib haqida ham ayrim fikrlar aytilgan. Maqolaning 4-qismida o‘sha davrdagi Hirot musavvirlari tilga olinib, binolar devoridagi yozuv, rasmlarni yaratish san’ati to‘g‘risida ham ancha keng xabarlar qayd etilgan. N. qurdirgan “Ixlosiya”, “Xalosiya” binolari va Fariduddin Attor hamda Qosim Anvor maqbaralari tilga olingan. Muallif Muiniddin Isfazoriy asaridan kelib chiqib, Sulton Husayn tomonidan qurdirilgan binolar haqida ham ma’lumot bersa, 5-qismida N. davridagi Hirot musiqa san’ati haqida, xususan, sohaning peshqadam vakillaridan Ustod Qulmuhammad Udiy, Shayxi Foniy Noiy, Husayn Udiy, Shohquli G‘ijjak; shaxmatchi Mavlono Fasihuddin Sohiblardan bahs etilgan. Qisqasi, maqola XV asr Hirot madaniyati, san’ati, adabiyoti haqida keng ma’lumot berishi b-n manfaatlidir.

Yirik olim A.A.Molchanovning “Alisher Navoiy davri Hirot soliq sistemasi xarakteristikasi” nomli maqolasi uch qismdan iborat bo‘lib, avvalgi qismda A.Jomiyning 1472-y.gi safari, u bosib o‘tgan yo‘l, shahar, qishloq va davlatlar haqida, 2-qismida esa Hirot shahrining tutgan o‘rni, uning aholisi, Jomiyning mavqeyi, unga tegishli yer-joy, o‘sha davrdagi soliqlar to‘g‘risida, 3-qismida Sulton Husayn tomonidan chiqarilgan farmonlarning mohiyati borasida mulohazalar yuritilgan.

Adabiyotshunos M.Sal’e “Makorim ul-axloq” va uning muallifi” maqolasida (Alisher Navoiy haqida yangi biografik materiallar nomi b-n) N. biografiyasiga doir adabiyotlar yetarli o‘rganilmaganini ta’kidlab, akad. V.V.Bartold “Mir Alisher va siyosiy hayot” maqolasida anchagina ko‘p va muhim materiallardan foydalanganini ko‘rsatib o‘tadi. So‘ng Xondamir va uning asarlari haqida ma’lumot beradi. Maqolada Xondamirning hayoti va dunyoqarashining shakllanishida N.ning roli katta bo‘lgani alohida ta’kidlangan. “Makorim ul-axloq” ning N. tarjimayi holini o‘rganishdagi o‘rni juda muhim ekani to‘g‘ri ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, to‘plamda Xondamirning “Makorim ul-axloq” asari qisqartirilgan holda tarjimada berilgan. To‘plam oxiridan To‘xtasin Jalolovning “Sab’ai sayyor” maqolasi o‘rin olgan. Unda Bahrom obrazining evolyutsiyasi hamda N.da ishlanishi haqida gap boradi, so‘ng N. dostonining qisqacha mazmu-

ni keltiriladi. To‘plam ilk marta N.ning hayoti va ijodi, asarlari, davri haqida rus va Yevropa sharqshunoslari tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatolarga ancha keng va to‘g‘ri baho berilgani b-n n.shunoslikda alohida ilmiy qimmatga ega.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-жилдлар. – Т., 2011; Родоначальник узбекской литературы. – Т., 1940.*

T.A., S.O‘.

ROJIY (Taxallusi; to‘liq ismi: Muhammad Yusuf Rojiy Xorazmiy (1825–1870) – shoir, tarjimon. O‘zbek mumtoz she’riyatining XIX asrdagi taniqli namoyandalaridan. R.ga ma’rifatparvar otasining ta’siri katta bo‘lgan. Biroq u o‘smirlik davrida otasi olamdan o‘tadi va Muhammad Yusuf juda qiyinchilik b-n madrasada tahsil oladi. U madrasada arab, fors tillarini mukammal o‘rgangani shubhasiz, bunga uning arab va fors tillaridan qilgan tarjimalari guvohlik beradi. U tez orada zukko shoir sifatida tanilib, husnixatda alohida qobiliyati b-n nom chiqaradi va Muhammad Aminxonning nazariga tushadi. Uning buyrug‘i b-n mashhur muarrix Mirxondning muazzam “Ravzat us-safo” asarining IV va V jildlarini tarjima qiladi. U ilmi nujumga oid “Lubbi lavoyiq ul-qamar fi-l ixtiyorot” (“Oyning odamlar harakatiga doir qulay vaqt tanlash u-n ko‘rsatmalari”) deb nomlangan asarni ham fors tilidan o‘zbek tiliga o‘girgan.

N.ning boy va rang-barang adabiy merosi R. ijodiga har tomonlama keng va chuqur ta’sir ko‘rsatgan: u shoir g‘azallariga tatabbu’lar qilgan, taxmislar bog‘lagan, navoiyona g‘azal va baytlar ijod qilgan, buyuk salafining fikr-u tashbehlaridan ilhomlanib, ularni rivojlantirgan, yangi qirralarini ochgan. R. N.ning “Arz”, “Aylab”, “Bahs”, “Gul”, “Maxlaz”, “Qadah”, “Qos”, “O‘t” radifli qator g‘azallariga tatabbu’lar qilgan. U o‘z tatabbu’larida goh g‘azalning vazni, qofiyasi va radifini aynan saqlasa, goh vaznini o‘zgartiradi, goh qofiya tizimini yangilaydi. Jumladan, “F.K.” dostonida N.ning 7 baytli “Maxlaz” radifli g‘azali mavjud:
Istamasmen vale ul ofati jondin maxlaz.

R. ayni radifda, lekin boshqa vaznda 7 baytli g‘azal yozadi:

Men istagum umri jovidondin maxlaz,
Lek tilarman zamone ondin maxlaz.

Keltirilgan tatabbu’da vazn o‘zgartirilgan bo‘lsa, quyidagi tatabbu’da qofiya tizimi yangilangan:

N.:

Ey sabo, jonim halokin ayla jononimg‘a arz,
Yo‘qki, jismi notavon ahvolin et jonimg‘a arz.

R.:

Ey sabo, qil g‘am hujumin yori g‘amxorimg‘a arz,
Ko‘nglim oshubin yalg‘uzlig‘da dildorimg‘a arz.

Har ikki g‘azal ham 7 baytdan iborat bo‘lib, ramali musammani maqsur vaznida yaratilgan. Ayni paytda g‘azal N. uslubida yozilgan, N.ga xos gap tuzilishi asosida shakllantirilgan. “Subh” radifli g‘azaliga tatabbu’da esa vaznni ham, qofiya shaklini ham saqlagan:

N.:

Nega ko‘rguzdi sovug‘ oh-u sarig‘ ruxsor subh,
Gar nihoniy mehrdin mendek emas bemor subh?

R.:

Olmish o‘tlug‘ orazidin burqa ul dildor subh,
Tong emas tortar falakka ohi otashbor subh.

R. salafining mashhur “Har tunung qadr o‘lubon, har kunung o‘lsun Navro‘z!” misrasidan ilhomlanib, “Har bir kunini iyd etibon, har tunini qadr” misrasini yaratadi. Shoirning “Ishq tig‘i faqat bulbul ko‘nglini chok etibgina qolmay, gul yuzini ham qanchalik tirnaganiga qara” mazmunidagi:

Ishq tig‘i yolg‘uz etmas bulbul a’zosini chok,
Ko‘r, nechuk yuz soridin bo‘lmishturur afgor gul, –

bayti ham aslida N.ning “Parvonani kuydirgan shamning o‘zi ham kuymay qolmaydi” mazmunidagi “Shamki, parvonani o‘rtar o‘zi ham o‘rtanur”, – misrasining bevosita bo‘lmasa ham, bilvosita ta’sirida yaratilgan ko‘rinib turibdi.

R.ning M.Berdimurodova tomonidan nashrga tayyorlangan “Tanlangan asarlar”ida shoirning jami 34 ta muxammasi bo‘lib, shundan 14 tasi N. g‘azallariga bog‘langan. Shu dalilning o‘ziyoq N. ning R. ijodida katta o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Bu muxammaslar tahlili R.ning taxmis bog‘lashning rosa hadisini olgani, muxammasnavislikda tom mahorat hosil qilganidan dalolat beradi. Quyidagi g‘azalga bog‘langan taxmis fikrimizning yorqin dalili – R. tomonidan qo‘shilgan misralar N. bayti b-n uyg‘unlik kasb etib, muxammas bir shoirning qalamidan chiqqanday taassurot qoldiradi:

Istasang kirmak agar ahli muhabbat sonig‘a,
Sur azimat tavsanin dashti fano maydonig‘a,
Boqma olam gulshanining har guli xandonig‘a,
Otashin gul garchi ziynatdur jahon bo‘stonig‘a,
Barq erur har el uchurg‘on bargi bulbul jonig‘a.

Maz.: Agarda muhabbat ahli qatoriga kirishni istasang, maqsad arg‘umog‘ini fano maydoniga boshla. Olam gulshanining har bir xandon guliga mahliyo bo‘lma, chunki cho‘g‘day yonib turgan qizil gul dunyo bo‘stoniga ziynat bag‘ishlashi barobarida el uchirgan har bargi bulbul jonini kuydirguvchi yashindir.

R. o‘z muxammaslarida N. fikrlarini davom ettirish, to‘ldirish, yangidan-yangi qirralarini ochishga harakat qilibgina qolmay, ularning go‘zal va ta’sirchan tarzda ifodalanishi, jaranglab chiqishi u-n ham turli yo‘llarni izlaydi: ohorli timsol-u tashbehlar kashf etadi, badiiy san’atlardan mahorat b-n foydalanadi, tutilmagan qofiyalar topadi, ba’zi so‘z va iboralarni radifga chiqaradi. M-n, quyidagi maqta’ga bog‘lagan taxmisida “munglug‘ ko‘ngul” iborasini radifga aylantiradi – bu esa bandga jarangdorlik va ta’sirchanlik bag‘ishlaydi:

Suygali bir dilbari oromijon munglug‘ ko‘ngul,
Hajr anduhidin o‘lmish notavon munglug‘ ko‘ngul,
Rojiy yonglig‘ tortibon o‘tlug‘
fig‘on munglug‘ ko‘ngul,
Bazm aro o‘rtar Navoiyni nihon munglug‘ ko‘ngul,
Ey mug‘anniy, chun nihon rozim bilursan soz tuz.

Maz.: Mungli ko‘ngil bir oromijon dilbarni suyib, uning hajrida notavon bo‘libdi va R. kabi o‘tli fig‘on tortibdi. Bazm aro mungli ko‘ngil N.ni yashirin o‘rtaydi. Ey cholg‘uvchi, mening pinhon sirimni bilar ekansan, shunga qarab kuyingni sozla.

Ma’lumki bo‘ladiki, N. adabiy merosining R. ijodiga ta’siri keng va serqirradir.

Ad.: *Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011; Муҳаммад Юсуф Рожий Хоразмий. Жамолинг гулшанининг булбулиман. Танланган асарлар. – Т., 2008; Очилов Э. Рожий ижодида Навоий анъаналари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 2021, № 1.*

E.O.

ROJIY MARG‘ILONIY (taxallusi, asl ismsharifi Xo‘jajon Xo‘ja Nizomiddin Xo‘ja o‘g‘li, 1837 – 1918, Farg‘ona) – shoir. U avval boshlang‘ich maktabda, keyin Qo‘qon va Buxoro madrasalarida ta’lim olib, diniy va tabiiy bilimlarni chuqur o‘rganadi, arab va fors tillarini mukammal egallagan. Husnixat va savodxon bo‘lganligi u-n mirzalik qilgan. R.M.ning adabiy merosi 10 ming misraga yaqin: ular g‘azal, muxammas, masnaviy, muammo, ruboiy, tuyuq, qit’a, fard, ta’rix kabi adabiy janrlarda bitilgan. U lirik she’rlarida sevgi, oliyjanob fazilatlarni ulug‘laydi, zulm va adolatsizlikdan noliydi. Shoir Hofiz, Jomiy, N., Bedil, Fuzuliy, Nodira va Furqat kabi shoirlarning g‘azallariga nazira va taxmislar bog‘lagan. R.M.ning ijodkor sifatidagi g‘oyaviy-badiiy takomilida N.

ijodiy tajribasi katta rol o‘ynagan. Biz R.M.ning g‘azal va muxammaslarida, masnaviy va ruboiylarida N. merosining aniq ta’sirini ko‘ramiz. “B.V.”dan o‘rin olgan:

Gar bahor el topsa bo‘stondin gul-u rayhon isi,
Kelur ul rayhon ila guldin menga hijron isi, –

matla’li g‘azalga R.M. tomonidan bog‘langan taxmis bunday jiddiy ta’sirlanishning yaqqol dalili bo‘la oladi. U ulug‘ ustoz baytlari yuksakligi darajasida qalam tebratishga, ular ruhi va mazmunida misralar bitishga, N. g‘azaliga xos bo‘lgan ijtimoiylikni saqlashga urinadi:

Bu chaman naxlida xurramlikni mo‘ye topmadim,
Bulbuli savtida xushlik guftigo‘ye topmadim,
Shabnamidin ham baqolik obro‘ye topmadim,
Manki, bir guldin jahon bog‘ida bo‘ye topmadim,
Naylayin qilsa muattar dahrni bo‘ston isi.

Chindan ham bu taxmis har jihatdan muvaffaqiyatli chiqqan. Furqat R.M.ning “Amir Alisher Navoiyning bir g‘azaliga qilg‘on muxammasi nihoyatda mustahsan ko‘rundi”, – deb yozganida xuddi shu taxmisni nazarda tutgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик, 3-жилд. – Т., 2011; Ҳўқандлик шоир Зокиржон Фурқатнинг аҳволоти, ўзи ёзғони. Туркистон вилоятининг газети, 1891-йил 20-апрел, №16; Ф. Аҳмаджонова. Шоир Хўжажон Рожий ижоди (“Ҳаёт ва адабиёт” тўпламида. – Т., 1968.); М.Мадгазиев. Роджи Маргинани и эго поэтическое мастерство. Автореферат. – Самарканд, 1973.*

A.A., S.O‘.

ROJIY SULAYMONQUL SUYARQUL O‘G‘LI – XX asr Qo‘qon xattotlik maktabi vakili. Sarmozor daha, Ko‘rxona mahallalik Sulaymonqul usta Suyar o‘g‘lidir. Bir necha xat turlari, ayniqsa, nasta’liqni yaxshi yozgan. R.S.S. fors, arab va o‘zbek mumtoz shoirlar ijodini chuqur o‘rgangan. U 1914-y.da N.ning “X.M.”, “M.N.”-ni bir qo‘lyozma holida jamlab ko‘chirgan. Qo‘qon Adabiyot muzeyi. Inv. № 220. 104-q. Kotib qo‘lyozmaning so‘ngida ruboiy sanasini yozib ko‘rsatgan. Qo‘lyozma 1329/1911-y.da chiroyli nasta’liq xatida ko‘chirilgan, unga badiiy bezaklar berilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4 жилдлар. – Т., 2011; Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. – Т., 1991.*

Muh.A.

“ROZNI ASRA...” – N.ning “B.V.” devoniga kiritilgan qit’asi:

Rozni asra, chunki fosh etting,
Yana pinhon bo‘lurni qilma havas.
Ko‘nglung ichra nafas kabidur roz,
Qaytmas, kimsadin chu chiqti nafas.

Roz asrash – sir saqlash. Uni asrash – mutlaqo shaxsiy ish. Inson boshidan qanday voqea va hodisotlar kechmaydi deysiz bu hayotda. Istang, istamang, ular orasida pinhon saqlanadiganlari ham bo‘ladi. Ularning ba’zilari shaxsiy narsalar sifatida faqat o‘z qalbingda saqlashni talab etadi. Bular – qalb sirlari. Xotira esa bamisoli sir xazinasidirki, undagi sirlarning qadr-qimmatini chuqur tushunmaslik xotirani tahqirlaydi. N.ning ta’kidiga ko‘ra, sirni asrash ham kerak. Oshkor bo‘lgan sir – sirmas. Uning “Yana pinhon bo‘lur”ini havas etish befoyda. Chunki u ham nafasga o‘xshash bir narsa. Chiqqan nafasni qaytarib bo‘lmaganidek, ochilgan sirni qayta yashirishning mutlaqo iloji yo‘q. Sir bekitish boshqa, pismiqlik boshqa. Bularni ajratish lozim. Pismiq zotlar ko‘rsichqon singari o‘zini yashirishga moyil. Ular jon-jahdlari b-n o‘z nodonliklari va jirkanch qilmishlarini xaspo‘shlashadi. Insoniy sir kishisida esa hech payt qo‘rquv va jonsaraklik sezmaysiz.

Ad.: *Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик, 3-жилд. – Т., 2011.*

I.H.

ROY I – Hindiston hukmdorlarining unvoni. Bu so‘z N. asarlarida “hindlar hukmdori”, “Hindiston podshosi” ma’nolarini anglatadi. Jumladan, “T.M.A.”da u Bahrom Go‘rning Hindistondagi sarguzashtlarini bayon qilar ekan, Hind hukmdoriga nisbatan “R.” so‘zini “podshoh” so‘zining sinonimi sifatida ishlatadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 2002.*

Q.E.

ROY II – “S.I.” dostonidagi qahramon. Iskandar Kashmirni o‘ziga itoat qildirgandan so‘ng, Hindistonga kirib boradi. R. unga qarshilik ko‘rsata olmasligiga aqli etib, sulh yo‘lini tutadi va Iskandarga ko‘pdan-ko‘p sovg‘alar, otlar, fillar, qimmatbaho narsalar yuboradi. Shuningdek, u bir guruh kishilarni ham jo‘natib, ular orqali o‘zining Iskandar hokimiyatini tan olishi va unga itoat qilishini bildiradi. Iskandar bundan mamnun bo‘ladi. Ikki o‘rtadagi kelishuvdan so‘ng, R. uning huzuriga keladi. Iskandar R.ni yaxshi qabul qilib, izzat-hurmat ko‘rsatadi, uning o‘z ixtiyori b-n bo‘ysunganini hisobga olib, xalqiga yaxshi munosabatda bo‘ladi. Iskandar R.ning taklifini qabul qilib, qish faslini Hindistonda o‘tkazadi. Dostonda ushbu qahramon hushyor, vaziyatga qarab ish ko‘radigan, kibr- havodan yiroq hukmdor sifatida tasvirlangan.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Ўзбек адабиёти тарихи. 5 жилдлик, 2-жилд. – Т., 1977.*

Q.E.

ROSTLIG‘ (f.t.– rostlik, rostgo‘ylik) – haqqoniylik, to‘g‘rilik, ishonchlilik. N. asarlarida R. so‘zining sinonimi sifatida sidq, sadoqat kabi so‘zlar ham ishlatiladi. R. musulmonlik, umuman, insoniyat hayotiy faoliyatining mazmuni, fazilatli ustunlaridandir. N. yolg‘onchilikni qancha qoralagan bo‘lsa, rostgo‘ylikni shuncha maqtagan va targ‘ib qilgan. Uning “H.A.” dostonidagi 10-maqolat sarlavhasi “Rostliq ta’rifidakim...” deb boshlanadi va R. mavzusining rang-barang qirralarini ochishga bag‘ishlanadi. Maqolat quyidagi so‘zlar b-n ochiladi: “Har kim o‘ziga to‘g‘rilikni odat qilgandan keyin charxning teskari aylangani bilan uning nima ishi bor?! Yo‘l qancha to‘g‘ri bo‘lsa, maqsad shuncha yaqin, yo‘l egri bo‘lsa, maqsad uzoqlashadi”. N. bu maqolatida nay, chang, nayza, mistar, sarv daraxti, sham, parvona, ko‘z kabi narsalarni bir-biriga qiyoslab, hayotiy tashbehlar orqali R. va egrilik tushunchasining mohiyatini ochib beradi. M-n, “Nay to‘g‘ri bo‘lgani uchun so‘fiylar uni yaxshi ko‘rishadi; chang to‘g‘ri bo‘lmagani uchun qulog‘i buraladi. Nayza to‘g‘ri bo‘lganidan doim boshi yuqori; arqon esa chirmashligi tufayli bog‘lash uchun ishlatiladi va h.k. Shoir “Kimning qo‘li egri bo‘lsa, o‘g‘ri bo‘ladi. Kimki qo‘li egrilik bilan shuhrat topgan bo‘lsa, xalq uning qo‘lini kesib, to‘g‘ri qiladi”, qabilidagi so‘zlar orqali insonni to‘g‘riso‘z va to‘g‘ri bo‘lishga chaqiradi. Shuningdek, ulug‘ shoir Sulaymon (a.s.) uzugi orqali ko‘p ishlarni amalga oshirganidek, zamon shohi Husayn Boyqaroning ham uzugiga “Rostlik – xaloslik” so‘zi bitilgani va u bu hikmatga amal qilgani u-n xalq uning farmoniga itoat qilganini talmeh san’ati orqali asoslaydi. “S.I.” dostonida ham “Tuzluk ta’rifidakim..” – deb boshlanadigan alohida fasl bor. U ham shunday boshlanadi: “Kimki chin gapiruvchi bo‘lsa, bu dunyoning eng badavlat kishisi shudir. Kimki qilgan va’dasiga vafo aylasa, Tangri uni murod-maqsadiga yetkazur!”. N. to‘g‘rilik tushunchasini rostgo‘ylikka bog‘lab, bir hikoya keltiradi: “Burungi chog‘da bir yolg‘onchi bor ekan. Bir kechasi uning uyiga eplab bo‘lmaydigan zo‘r o‘t tushibdi. Shunda u yordam so‘rab qancha dod-voy qilsa ham, eshitgani holda bironta odam faryodiga ishonmabdi.

Uning uyi tez orada kuyib kul bo‘libdi. Shundan so‘ng unga bir dono kishi bunday debdi: “Kimki, yolg‘onni ko‘p gapiradigan bo‘lsa, uning rost gapi ham xalq nazdida yolg‘on hisoblanadi. Agar uyingga o‘t tushganda xalq yordamga kelmagan bo‘lsa, o‘zingdan o‘pkala!” R. bilan bog‘liq fikr-u mulohazalarini N.ning boshqa asarlarida ham eslatib o‘tgan. U “M.Q.” asarida to‘g‘riso‘zlik haqida shunday deydi: “So‘zni ko‘nglungda pishqormag‘uncha tilga kelturma, harnakim ko‘nglungda bo‘lsa tilga surma. Agarchi tilni asramoq ko‘ngulga mehnatdur, ammo so‘zni sinamoq boshqa ofatdur. Aytur yerda unutma, aytmas yerda o‘zungni mutakallim tutma. Aytur so‘zni ayt, aytmas so‘zdin qayt. Oqil chindin o‘zga demas, ammo barcha chinni ham demak oqil ishi emas”. Masnaviy:

Xiradmand chin so‘zdin o‘zga demas,
Vale bari chin ham degulik emas.

Kishi chin so‘z desa zebo durur,
Necha muxtasar bo‘lsa, avlo durur.

N.ning “S.S.” dostonidagi sidq (rostgo‘ylik) haqidagi qarashlari ham boshqa asarlaridagi mulohazalar b-n hamohanglik hosil qiladi. 6-iqlim yo‘lidan kelgan musofir “Muqbil va Mudbir” hikoyatini so‘zlaydi va shoir rostgo‘ylik xabarchisiga tasannolar aytadi:

Dedi: “Ahsanta, muxbiri sodiq,
Sidq aro kimgakim desak foyiq,
Tuzlugung ko‘nglumizni sayd etti,
Jonimizni asiri qayd etti”.

Ma’lumki, N. she’riyatida tasavvuf haqiqatlarini aks ettiruvchi talay bayt-u g‘azallar mavjud. Tasavvuf rostlik va sidq-u sadoqat yo‘lidir. N.ning ta’kidlashicha, Shuayb (a.s.) Muso (a.s.) ning qo‘liga hassa tutqazib, uni to‘g‘ri yo‘lga boshlab qo‘ygani kabi haqiqiy muallim – murshid ham muridiga R.dan ta’lim beradi va yo‘lga soladi.

Rostlig‘ irshodi bu yo‘lda qilur tolibg‘a pir,
Rost ul yanglig‘ki,
Musog‘a aso berdi Shuayb.

Anglashiladiki, R. inson hayotida yuksak ahamiyatga ega bo‘lib, N. asarlarida uning turlicha talqin va tahlillari o‘rin olgan. Ular har bir davr jamiyati u-n, ayniqsa, yoshlar ta’lim-tarbiyasi u-n bugun ham dolzarb va zarur bo‘lib qolaveradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Хамса. Насрий баён. (муаллифи Ўткир Йўлдошев). – Т., 2019; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик, 3-жилд. – Т., 1985.*

S.R.

ROG‘IB – taxallusi; asli ism-sharifi Muhammad Rahim Shokir o‘g‘li (1865–1935, Xorazm) – shoir. U dastlabki ma’lumotini mahalla maktabida va Xivadagi Muhammad Amin madrasasida oldi. R. yoshligidanoq adabiyotga qiziqadi va Rog‘ib (rag‘batli, intiluvchi, moyil) taxallusi b-n she’rlar yozadi. U N., Munis, Ogahiy, Feruz, Ravnaq, Tabibiy singari taniqli so‘z ustalarini o‘zining ustozi deb biladi va ularning g‘azallariga muxammaslar bog‘lagan. Muhammad Rahimxon Feruzning amri b-n she’rlarini to‘plab, 1899-y.da devon tuzgan. N.ning “G‘.S.”dagi “Ko‘nglum o‘rtansun agar g‘ayringg‘a parvo aylasa”, “O‘zga bo‘ldi yor-u mehri menda boqiydur hanuz”, “N.Sh.”dagi “Ul oyning gulshani husnin xazondin asrag‘il, yo Rab”, “Sho‘x ikki g‘izolingni noz uyqusidin uyg‘at”, “Do‘stlar, olam eliga yor-u hamdam bo‘lmangiz”, “B.V.”-dagi “Xushturur bir tiyra shomi hajr iki yor uchrashib”, “Ishq jurmig‘a meni, ey do‘stlar, yozg‘urmangiz”, “Ey mug‘anniy, chun nihon rozim bilursen – soz tuz”, “F.K.”dagi “Gul kerakmastur menga, majlisda sahbo bo‘lmasa”, “Tun aqshom keldi kulbam sari gul gulrux shitob aylab”, “Muvofiq kiydilar, bo‘lmish magar navro‘z ila bay-

ram” kabi g‘azallariga R. jami 11 ta muxammas bog‘lagan. M-n:

Guliston sayrin et, ketgay boshingdin qayg‘u birla g‘am,
Bo‘lub gul sayrin aylarlar bore gulchehralar hamdam,
Bori xushhol no‘sh aylar mayi rangin, jomi Jam,
Muvofiq kiydilar, bo‘lmish magar navro‘z ila bayram,
Chaman sarvi yoshil xil’at, mening sarvi ravonim ham.

Ko‘rinadiki, muxammasda “guliston”, “gulchehra”, “chaman”, “may”, “Navro‘z”, “jomi Jam” singari so‘zlar mazmunan uyg‘unlik hosil qilgan. Navro‘z bayramining shukuhi, shodiyonasi, yor go‘zalligi, eng muhimi, Allohning go‘zalligi hamda Musavvir ismiga xos yaratuvchanlik qudrati har ikki shoir tomonidan mahorat b-n badiiy manzaralashtirilgan. R.ning quyidagi beshligida N. nazmiga oshufta bo‘lgani, ich-ichdan ko‘ngildoshi his qilgani, shuningdek, badiiy mahorat bobida ustoziga ergashish asnosida o‘z she’riy salohiyatini yanada oshirishga intilgani ko‘zga tashlanadi:

Ruxsori jahontobing bu bedilingga ko‘rsat,
Ag‘yor tanini xijlat otashgahida o‘rtat,
Furqatda xumorimni la’ling mayidin tarqat,
Sho‘x ikki g‘izolingni noz uyqusidin uyg‘at,
To uyqulari ketsun, gulzor ichida o‘ynat.

Shoir vaznda mushtaraklikni saqlab qolishga hamda mazmunan yangi asar yaratishga erishgan. Zero, N.ning badiiy mahorat jihatidan baland saviyadagi g‘azallariga R.ning nazira yoki muxammaslar bog‘lashga uringani ham juda muhimdir.

Ad. *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик, 3-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011; Роғиб. Девон. ЎзР ФАШИ Шарқ қўлёзмалари маркази. Қўлёзма №66-81-II. 120а-318б-варақлар; Отамуродова А. Муҳаммад Раҳим Роғиб. Китобда: Асрлар нидоси. Муттоз ўзбек адабиётидан намуналар. – Т., 1982; Тазкираи Қайюмий, 2-дафтар. – Т., 1998.*

A.A., E.O.

ROHIL – “T.A.H.” asarining “Ya’qub (a.s.)” zikrida N. tilga olgan asar qahramoni. R. Lubnonning katta qizi. Ya’qub (a.s.)ning xotinlaridan biri, Yusuf (a.s.) va Ibni Yaminning onasi. Mazkur ona obrazi ushbu zikrning boshidan oxirigacha qatnashgan. Ammo Yusuf (a.s.) b-n bog‘liq ba’zi asarlarda onasi R.ning vafot etgani haqida ham gaplar bor. M-n, Rabg‘uziy “Qisasi Rabg‘uziy”da Yusuf (a.s.)ning onasi vafot etgani, akalari uni savdogarlarga 17 dinorga sotgani haqida yozgan. Bola Yusufning yo‘lda onasi qabrini ko‘rib qolib, savdogarlar qo‘lidan chiqib, o‘zini ona qabri ustiga tashlagani va tang, baxtsiz holatini onasiga yig‘lab bayon qilgani xususida ham xabarlar bor. Atoqli n.shunos N.Mallayev “Qisasi Rabg‘uziy” tadqiqotida bola Yusufning ona qabridagi iltijosi, yig‘isi, ruhiy holati yoritilgan masnaviyni tahlil qilgan.

Ko‘rinadiki, “T.A.H.” asarida R.ning tirikligi aytilgan va u b-n bog‘liq hodisalar tasvirlangan.

Ad.*: Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т., 1976.*

B.R.

ROHRAV (RAHRAV) (f.) – 1. Yo‘l yuruvchi, yo‘lovchi. 2. Sayyoh, musofir. 3. Majoziy: tariqat yo‘liga kirgan kishi, solik, murid, orif, tasavvuf ahli. N. ijodida keng qo‘llangan timsol. Tasavvufda tariqat yo‘liga kirib, riyozat bosqichlarini bosib o‘tgan kishi. Uning sayri hali oxiriga

yetmagan – matlub manzilini topmagan bo‘ladi. “G‘.S.” devonidagi 161-g‘azalning begona bayt sifatida kelgan 6-qo‘shmisrasi mana bunday jaranglaydi:

Baqo topar ulki, bo‘ldi foniy,
Rahravg‘a baqo fano bo‘luptur.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Бертельс Э. Миръоти ушшоқ. – С. 151; Фарҳанги забони тожики. Жилд 2. – М., 1959.*

E.O., Z.R.

ROQIM (taxallusi; ismi noma’lum) (1742–1814/15, Xiva) – shoir, xattot. Mohir xattot bo‘lgani u-n raqam qiluvchi, xat yozuvchi ma’nosidagi ayni taxallusni olgan. Ba’zi ma’lumotlarga qaraganda u dastlab qozixonada ishlagan, keyin maktabda dars bergan. Qo‘lyozma devoni O‘zR FAShIda 7576-inv. raqami b-n saqlanadi. U 6470 misra hajmidagi g‘azal, muxammas, ruboiy, qit’a, marsiya kabi janrlardagi she’rlarni o‘z ichiga oladi. Asosan o‘zbek tilida ijod qilgan. Turli bayozlardan shoirning yana 25 muxammasi va 6 g‘azali topilgan. 86 ta muxammasidan 29 tasi N. g‘azallariga bog‘langan. M-n, ulug‘ shoirning “Kelmadi” radifli g‘azaliga bog‘lagan taxmisi uning iste’dodli shoir bo‘lish barobarida muxammasnavislikda ham katta mahorat hosil qilganidan dalolat beradi:

Yig‘lasam qon ishq jurmi birla
yozg‘urmang meni,
Nolavu afg‘on qilur deb ko‘yidin surmang meni,
Ta’n o‘ti birla yoqib, jonimni kuydurmang meni,
Ko‘zlaringdin necha suv kelgay
deb o‘lturmang meni –
Kim, bori qon erdi kelgan, bu kecha suv kelmadi.

R. tomonidan qo‘shilgan misralar N. g‘azalida ifodalangan fikrni kengaytirish va chuqurlashtirishga xizmat qilgan.

N.ning “Etding meni”, “Arz”, “Etdi” radifli g‘azallariga tatabbu’lar qilgan. Jumladan, buyuk salafining:

Ey falak, bir oy g‘amidin asru zor etting meni,
Po‘yadin tun-kun o‘zungdek beqaror etting meni.

matla’li g‘azaliga:

Ey falak, bir sarvqad ishqida zor etting meni,
Kecha-yu kunduz o‘zungdek beqaror etting meni, –

bayti b-n boshlanadigan tatabbu’ bitadi. G‘azal va tatabbu’ning ilk baytida mushtaraklik mavjud bo‘lsa-da, tatabbu’ keyingi baytlardan boshlab o‘ziga xos o‘zanda davom etadi va ohorli g‘azal maqomiga ko‘tariladi. Buni tatabbu’da o‘zi asos bo‘lgan g‘azaldagi boshqa qofiyalarning takrorlanmasligida ham ko‘rish mumkin.

Ad.: *Роқим. Танланган асарлар. – Т., 1965; Қосимхўжаева О. Шоир Роқим // Роқим. Танланган асарлар. – Т., 1965.*

E.O., S.O‘.

RUBOIY (ar. – to‘rtlik) – Sharq mumtoz she’riyatida keng tarqalgan 4 misradan iborat she’riy janr. Arabcha nomlanishiga qaramay, bu janr dastlab forsiy adabiyotda paydo bo‘lib, keyin arab va turkiy so‘z san’atiga o‘tgan. Janrning asoschisi sifatida Abu Abdulloh Rudakiyni ko‘rsatadilar. Chunki janrning barcha talablariga javob beradigan ilk ruboiylar Rudakiy qalamiga mansub.

Xalq to‘rtliklari R.ning kelib chiqishiga muayyan darajada zamin bo‘lib xizmat qilgan bo‘lsa-da, u yozma adabiyot mahsuli bo‘lib, faqat hazaj bahri axram va axrab tarmoqlarining 24 vaznida yaratiladi. Boshqa har qanday vaznga solinsa, u R. emas, balki qit’a yoki to‘rtlik deb ataladi. Vazn R. u-n janrni belgilash darajasidagi muhim omil bo‘lgani u-n ham Y.Is’hoqov: “Har qanday to‘rtlik ruboiy bo‘lavermaydi. Biror to‘rtlikni ruboiy deb atash uchun unda tugal mazmun, ruboiy shakli bo‘lishidan tashqari, ruboiy vazni ham bo‘-

lishi kerak. To‘rtlik qanchalik chuqur ma’no va go‘zal shaklga ega bo‘lmasin, agar u ruboiyning maxsus vazniga tushmasa, ruboiy bo‘la olmaydi”, – deb yozadi. G‘.Salomov va N.Komilovlarning yozishlaricha, R.da fikr o‘quvchining ruhi va qalbiga ta’sir orqali singdiriladi. R.da tuyg‘uni ifodalash, lirik kayfiyat tug‘dirish ustun. R. o‘ychan tuyg‘uni, hikmatona lirikani ifodalashi b-n ajralib turadi. Ana shu o‘ziga xos ma’no talqini, ta’siri va tarannumi axram va axrab vaznlarida muvofiq ohang b-n mukammal bir tarzda ro‘yobga chiqadi. O‘zbek adabiyotida axrab guruhidagi vaznlar yetakchilik qiladi.

R. ikki xil qofiyalanish tartibiga ega: birinchi, ikkinchi va to‘rtinchi misralari o‘zaro qofiyalanib, uchinchi misrasi ochiq qoladigan (aaba) ruboiy xosiy deyiladi. “Bunda shoir tinglovchi va o‘quvchining e’tiborini bir nafas kuchliroq jalb qilib, masalaning eng muhim momenti kelayotganidan darak beradi. Qofiyasiz misra go‘-yo mantiqiy kulminatsiya singari jaranglaydida, ko‘pincha aforizm darajasiga ko‘tariladigan oxirgi misrada o‘z intihosiga etadi”. M-n:

G‘urbatda g‘arib shodmon bo‘lmas emish,
El anga shafiqu mehribon bo‘lmas emish.
Oltun qafas ichra gar qizil gul butsa,
Bulbulg‘a tikandek oshyon bo‘lmas emish.

To‘rtala misrasi ham qofiyalanadigan (aaaa) R.da ohangdorlik yuqori bo‘lgani u-n u tarona yoki R.i tarona deb yuritiladi. Bunday R. R.i musarra’ deb ataladi. N. esa uni ruboiya deydi. R.ning bu turi deyarli barcha ruboiynavislar ijodida uchraydi. X–XVI asrlarda to‘rtala misrasi ham qofiyalangan R. yozish urf bo‘lgan. Xususan, Unsuriy, Farruxiy, Abulfaraj Runiy, Mas’ud Sa’d Salmon, Adib Sobir Termiziy kabi shoirlar unga alohida mayl ko‘rsatganlar. N. ham ruboiyani ma’qul ko‘rgan. Shoir o‘zbekcha R.larining 95 foizi, forsiy R.larining esa barchasi ana shu ruboiya shaklida yozilgan. Xondamir bu haqda “... har to‘rt misrasi qofiyadosh va radifdosh bo‘lganiga nima yetsin”, deydi. Bunday R. nihoyatda latif sanalib, shoirdan katta san’atkorlikni talab qilgan. M-n:

Ko‘z birla qoshing yaxshi, qabog‘ing yaxshi,
Yuz birla so‘zing yaxshi, dudog‘ing yaxshi.
Eng birla menging yaxshi, saqog‘ing yaxshi,
Bir-bir ne deyin, boshdin-oyog‘ing yaxshi!

R.ning 1-misrasida juda muhim bir ma’no tezis qilib qo‘yiladi-da, keyingi 3 misra shu fikrning talqiniga bag‘ishlanadi yoki 1-, 2-misradagi fikriy tezisga 3-misra antitezis qo‘yilib, 4-misrada esa sintez (xulosa) beriladi. Ma’lum bo‘ladiki, 4-misra ruboiyda poetik ustun hisoblanadi.

Forsiy so‘z san’atidan farqli o‘laroq, N.gacha bo‘lgan o‘zbek adabiyotida R. uchramaydi. Buni mashhur muarrix Xondamir ham “Makorim ul-axloq” asarida alohida ta’kidlaydi: “Ko‘rinishicha, ul Hazratdan ilgari hech kim turkiy tilda ruboiy aytmagan...”. Ulug‘bek davrining zabardast olimi Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a” asarida ham R. sifatida keltirilgan misollarning forschasi R. vaznida bo‘lgani holda, o‘zbekchasi ramali musaddasi maqsur (mahzuf) vaznida. Bu o‘zbek mumtoz she’riyatida tuyuq vazni hisoblanadi. Ma’lum bo‘ladiki, bu davrda o‘zbek adabiyotida R. janri hali qonunlashmagan. Lutfiy va boshqa shoirlar ham o‘z R.larini ramali musaddasi maqsur yoki mahzufda yozganlar. Keyingi tadqiqotlar Lutfiyning 3 ta R.si R. vazniga tushishini ko‘rsatdi. Faqat Hofiz Xorazmiy devonidagi 11 ta R. hazaj bahrining tarmoqlarida bitilgan. Buning sababi uning Sherozga ketib qolib, o‘sha yerda yashagani va forsiy adabiyotda barqarorlashgan she’riy mezonlarga amal qilganida bo‘lsa kerak. Ma’lum bo‘ladiki, N. R. janrida qalam tebratganda o‘zbek adabiyotida bu janr b-n bog‘liq an’analar mavjud emas edi. Ayni jihatdan, N. o‘zbek adabiyoti tarixida R. janrining asoschisi hisoblanadi. Diqqatga sazovor yana bir jihat shundaki, forsiy adabiyotda R. yozmagan shoirlar juda kam bo‘lgani holda, o‘zbek so‘z san’atida ruboiynavislik yetakchi mavqega ko‘tarilgan emas. N.ning “X.M.” devo-

nida bor-yo‘g‘i 133 ta R. mavjud. Lekin “N.J.”-dagi 285, “D.F.”dagi 72 va boshqa adabiy, tarixiy, ilmiy asarlari tarkibida kelgan R.lari b-n qo‘shib hisoblaganda, ulug‘ shoir 700 ga yaqin R. yozgani ma’lum bo‘ladi. Boburning o‘zbek tilidagi R.lari 200 tadan oshadi. Keyingi paytlarda uning forsiy R.lari ham topilmoqda. O‘zbek adabiyotida son jihatidan eng ko‘p R. yozgan Ubaydiy bo‘lib, uning forsiy devonida – 418, turkiy devonida – 430 ga yaqin R. mavjud. Keyinchalik ruboiynavislik yana e’tibordan chetda qoldi. Munis va Ogahiydan so‘ng shoirlarimiz ijodida R. yetakchi o‘rin egallamadi. Muqimiy, Furqat, Zavqiy kabi zabardast shoirlar ijodida esa R.ni umuman uchratmaymiz.

***Ad**.: Алишер Навоий. Назм ул-жавоҳир. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Девони Фоний. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Мухтасар. – Т., 1971; Юнусов М. Классик ва ҳозирги замон поэзиясида рубоий // Барҳаёт анъаналар. – Т., 1969; Орзибеков Р. Лирикада кичик жанрлар. – Т., 1976; Ҳаққулов И. Ўзбек адабиётида рубоий. – Т., 1981; Козмоян А.К. Рубаи в классический поэзии ва фарси. – Ереван, 1981; Исъҳоқов Ё. Навоий ижодида рубоий жанри // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар, 1968, № 6.*

I.H., E.O.

RUB’I MASKUN (ar.) – to‘rtdan bir: Yer yuzining odamlar yashaydigan to‘rtdan bir qismi; dunyoning quruq va obod qismi. N. ijodida ham shu mazmunda qo‘llanadi. M-n, “F.Sh.” dostonida shunday bayt uchraydi:

Nedin derlar jahonni rub’i maskun,
Ki, uch rub’idur oning suvg‘a madfun.

***Ad.**: Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. – Душанбе, 1987; Фарҳанги забони тожики. Жилд 2. – М., 1969; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик, 2-жилд. – Т., 1984.*

E.O.



RUMIY JALOLIDDIN (1207 − Balx, 1273 − Ko‘niyo) − buyuk fors-tojik shoiri va mutafakkiri. Tasavvufdagi mashhur mavlaviya tariqatining asoschisi. O‘z davrining dongdor ulamosi, yirik kubraviya shayxi bo‘lgan otasi Bahouddin Valad Muhammad Xorazmshoh b-n kelishmay, uning tasarrufidagi Balx shahrini haj safari bahonasida tark etadi. Makka yo‘lida yosh Jaloliddin hayotida unutilmas voqea sodir bo‘ladi − Nishopurda avliyo F.Attor b-n uchrashib, uning duosini oladi. Ko‘zlarida ilohiy nur chaqnab turgan o‘spirinning kelajakda ulug‘ bir zot bo‘lib yetishishini sezgan shoir unga o‘zining “Asrornoma” asarini tuhfa qiladi. To‘rt-besh yilga cho‘zilgan sayr-u sayohatdan keyin oila Lorandada qo‘nim topadi. So‘ng Rum sultoni Alouddin Qayqubod I ning da’vati b-n Ko‘niyoga ko‘chib o‘tishadi. Otasi va uning shogirdlari tarbiyasini olgan, Halab va Damashq madrasalarida o‘qigan R.J. o‘z davrining yetuk olimi va mudarrisi bo‘lib yetishadi. Uning qalb ko‘zi ochilib, shoir sifatida dong taratishini esa majzub darvesh Shamsiddin Tabriziy nomi b-n bog‘laydilar. Bu najib insonning R.J. hayotidagi o‘rni haminqadarki, u o‘z g‘azallarini Shams taxallusi b-n yozadi, 42 ming bayt she’rdan iborat “Devoni Kabir” (“Ulug‘ devon”)ning ikkinchi nomi “Devoni Shams Tabriziy”dir.

R.J. o‘zidan keyingi Sharq va G‘arb so‘z san’atiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, N., Mirzo Abdulqodir Bedil kabi buyuk so‘z ustalari uni o‘zlariga ustoz deb bilishgan. Buyuk Gyote Abulqosim Firdavsiy, Shayx Sa’diy, Xo‘ja Hofizlar qatorida R.J. ijodi-

ni ham “Xizr chashmasi” deb atagan. Mashhurlikda Firdavsiyning “Shohnoma”si, Sa’diyning “Guliston”i, Hofizning “Devon”i b-n bir qatorda turgan, forsiy Qur’on nomi b-n shuhrat qozongan 25685 bayt (51370 misra)dan iborat “Masnaviyi ma’naviy”ni inson ma’naviy hayotining qomusi sifatida nafaqat Sharqda, balki G‘arbda ham ixlos b-n o‘rganishgan. “Dekameron” asaridagi ko‘plab syujet va motivlarni Sharq og‘zaki va yozma adabiyotidan olgan Jovanni Bokkachcho “Masnaviyi ma’naviy”dagi qator hikoyatlar asosida ham novellalar yaratgan.

Mavlono R.J.ning “Masnaviyi ma’naviy” asari diniy-ma’rifiy, falsafiy-tasavvufiy, ta’limiy-axloqiy mazmunga ega bo‘lib, tasavvuf ta’limotining asosiy mavzularini yoritishga qaratilgan benazir adabiy obida hisoblanadi. O‘z davrining noyob iste’dod sohibi bo‘lgan N. “L.T.” dostonini yaratishda Mavlono “Masnaviy”sidan ilhomlangan Sharqning buyuk so‘z san’atkorlaridan biridir. N.ning Mavlono R.J. ijodi bilan dastlabki tanishuvi Sayid Qosim Anvor ijodi orqali ro‘y bergani taxmin qilinsa-da, bizningcha, ulug‘ mutafakkir shoir shaxsiyati, she’riyati, falsafasi va tasavvufiy qarashlari, ayniqsa, “Masnaviy” asari b-n N.ning qiziqishi Jomiy da’vati, targ‘ib va tashviqlari asosida yuzaga kelgan. I.S.Braginskiy Jomiy ijodiga boshqa salaflardan ko‘ra, Mavlono R.J. ta’siri samarali bo‘lganligini ta’kidlab, “agar Abu Ali ibn Sino AQL ilohasi bo‘lsa, Jaloliddin Rumiy KO‘NGIL ilohasi hisoblanadi. Ko‘pchilik ijodkorlar aql va ko‘ngil yo‘nalishini birlashtirgan holda olib borganlariga qaramasdan, ular ijodida goh u yo‘nalish, gohida bu yo‘nalish 1-o‘ringa ko‘tarilib turadi. Jomiyning zukkoligi shundaki, u aynan ko‘ngilni yetakchi o‘ringa ko‘tardi”, – deydi. Jomiy “Nafahot ul-uns” tazkirasida Mavlono, uning shaxsiyati, ustozlari, xalifa va izdoshlari faoliyatiga doir bergan ma’lumotlari asosida ulug‘ mutafakkir shoirning inson va ijodkor, tariqat piri, orif va avliyo sifatidagi go‘zal portretini yaratadi. N. “N.M.”da ushbu ma’lumotlardan ayrim lavhalarini qisqartirgan bo‘lsa, ba’zi o‘rinlarda ularni qo‘shimcha ma’lumotlar b-n boyitadi. Undagi R.J.ga bag‘ishlangan fasl shunday fikrlar b-n boshlangan: “Mavlono Jaloliddin Muhammad Balxiy Rumiy (q.s.) Alarning valodati Balxda ermish, olti yuz to‘rtda, rabiul avval oyining oltisida. Debdurlarki, Mavlono xizmatlarig‘a besh yoshidan beri g‘aybe suvar va ruhoniy ashkol, ya’ni maloyika sufrasi va xavos ins-u jin pardasiki, qibobi izzat masturlaridurlar, zohir va mutamassil bo‘lurlar ermish”.

“Manoqib ul-orifin”dan boshlab deyarli barcha asarlarda R.J.ning olti yoshda ekanligida hayratlanarli va aql bovar qilmas hol zohir etganligini naql qilib qoldirganlar. Buning bayonini N. ham chetlab o‘tmagan: “Buzurgvor otalari xati bila topibdurlarki, Jaloluddin Muhammad Balxda olti yoshida odina kuni necha atfol bila bizing uylarning tomlarida sayr qilur ermishlar. Alardin biri yana biriga debdurki, keling, bu tomdin yana bir tomg‘a sekreli! Ul debdurki, bu harakat it va mushuk ishidir! Hayf bo‘lg‘ayki, odame anga murtakib bo‘lg‘ay. Agar sizing joningizda quvvate bo‘lsa, osmon tomig‘a sekreli! Va bu holatda tomdin havo tutubdur. Onchaki, alar ko‘zidin g‘oyib bo‘lubdur. Atfol iztirobdin qichqirishibdurlar va yig‘labdurlar. Bir lahzadin so‘ngra ko‘zi mutag‘ayyir va rangi o‘zgacha qaytib, hamul tomg‘a tushubdur. Atfolg‘a debdurki, ul soatki, sizga ul so‘zni aytadur erdim, ko‘rdimki, yashil kisvatlig‘lar meni sizing orangizdin sirmadilar va ko‘tarib osmong‘a elttilar va malakut ajoyibin menga ko‘rguzdilar. Chun sizlarning fig‘on va faryodingiz chiqti, yana bu yerga tushurdilar”.

Shams Tabriziy b-n Mavlononing munosabatlarida ko‘pchilikning nazarini o‘ziga qaratgan bir nuqta, bu – ustoz va shogirdning 1-uchrashuvlari va Shamsning R.J.ga, R.J.ning esa Shamsga paydo etgan ta’sir va taassurotlaridir. Ushbu nuqtani nazardan soqit qilmagan N. yozadi: “Mavlono Shamsuddin Qo‘nyag‘a etganda, Mavlono Jaloluddin madrasadin chiqib, jamoate ulamo aning rikobida boradur erdilar. Mavlono aning inonin (otini jilovini) tutib dedi: “Yo imom ul-muslimin, Boyazid buzurgrakdur, yo Hazrat Risolat (s.a.v.)? Mavlono debdurki: “ul so‘zning

haybatidin go‘yoki yetti osmon bir-biridin ayrildi va yerga to‘kuldi va mening botinimdin azim o‘te dimog‘img‘a urdi. Javob berdimki, Mustafo (s.a.v.) olam ahlining buzurgrakidurlar, Boyazid ne bo‘lgay?...” Shams Mavlononing javoblaridan faryod urib, behush yiqiladi. Mavlono shogirdlariga uni ko‘tarib madrasaga olib kirishga buyuradi. “Chun o‘ziga keldi va muborak boshin Mavlono tizi ustiga qo‘yub erdi, andin so‘ng aning iligin tutub ravon bo‘ldi va uch oy muddate bir xilvatda laylan va nahoran visol savmi bila o‘lturdilarki, aslo chiqmadilar. Va kishiga zahra (jur’at) yo‘q erdikim, alarning xilvatig‘a kirgay”. Bu uch oylik xilvat mobaynida ular nimalar to‘g‘risida suhbatlashganlar, Shams shogirdiga ishq va haqiqat sirlarini qay tarzda talqin qilib berganligi sir bo‘lib qolgan va bundan keyin ham sirligicha qolaveradi.

R.J. asarlariga N. butun ijodiyoti davomida murojaat qilib, ulardan ilhomlanganining bosh sabablaridan biri ham ana shunda. Bundan tashqari, R.J. asarlarining to‘la ravishda xalq tiliga muvofiqligi, unda xalq ta’birlari, maqol va hikmatli iboralaridan keng qo‘llanilganligi ham N.ga juda maqbul edi. N. tasavvufning murakkab va munozarali masalalarini badiiy talqin qilishda R.J.ga tayanganini ko‘rsatuvchi dalillar juda ko‘p. N.ning tasavvufga munosabati esa Attorga nisbatan boshqacharoq, aytish mumkinki, hayotiy va umumiylikdan xoliroq edi. Bizning nazarimizda, “Mantiq ut-tayr”da uchramaydigan hikoyatlarning “L.T.”dan o‘rin olganining asosiy sababi ham ana shunda. Ulardan biri Sharq shoirlarining asrlar mobaynida diqqat-e’tiborini o‘ziga jalb qilib kelgan o‘lim muammosi talqiniga bag‘ishlangan. Naql qilinishicha, “Mehtari a’zam Sulaymoni nabi” bir kun taxtda orom olib turganda yoniga bir malak kelibdi. U jon oluvchi Azroil edi. Xuddi shu kuni o‘limga mahkum bir kishini Sulaymon saroyida ko‘rib hayron qolgan Azroil payg‘ambarga deydi:

Bu azizeki qoshingda bu zamon –
Turmish o‘lmaktin anga yo‘qtur gumon.

Umrig‘a to‘lmish ajal paymonasi,
Hukm etmishkim bo‘lib hamxonasi-

Ham bu soat qatl tig‘in solg‘amen,
Hind iqlimida jonin olg‘amen...

Ana shunda g‘aroyib hodisa yuz beradi. Azroil qo‘lida jon taslim qilishi kerak bo‘lgan kishining ahvoli o‘zgaradi:

Bu kun o‘z holimg‘a hayronmen base,
Marg vahmidin pareshonmen base.

deydi. Albatta, uning bu sezgisiga hayron qolmaslik mumkin emas. Lekin unga o‘lim changalidan qutulishning yakka-yu yagona chorasi bu mulkni tark etib, boshqa yurtlarga qochish bo‘lib tuyuladi. Ammo u Hindistonga borib qolishi va u yerda jon taslim etishini xayoliga ham keltirolmaydi. Xullas, Sulaymon shamolga uni o‘zi istagan joyga eltib qo‘yishga farmon beradi:

El oni olib uchurdi tundu tez,
Bori a’zosig‘a solib rustaxez.

Natija shu bo‘ladiki, Hindistonga yetib borgach, g‘ayritabiiy ravishda u shamolni to‘xtatadi va:

Dedi: “Bu yerda manga orom ber,
Kim erur bo‘lmoqqa matlubum bu yer.

Bu orom lahza o‘tmay abadiy oromga aylanadi, ya’ni qazo hukmini Azroil belgilangan joyda va muddatida ado etadi. Hikoyatdagi “shamol” ramziy mazmunni ham aks ettiradi. Shuning u-n N. o‘z fikrlarini:

El bila hamtaklik etsa gar kishi,
Ruh qabzi keldi Azroyil ishi,

tarzida ifoda etadi.

Maz.: Kimda-kim shamol bilan yelib-yugursa ham, jonini olish Azroilning ishidir, deya xulosalaydi.

O‘limni qayerda va qanday qarshi olishini odam farzandining o‘zi bilmaydi. Ammo uning kuni bitgan bo‘lsa, hech qanday holatda ham o‘limdan qocha olmaydi. Aksincha, Sulaymon dargohiga madad so‘rab kelgan kishiga o‘xshab ixtiyoriy tarzda ajalga tomon chopadi. Hikoyatdan kelib chiqadigan asosiy ma’no ana shu. Bu hikoyat “Mantiq ut-tayr”da uchramaydi. Demak, u N. ning ijodiy yangiligi. Lekin bu ixtiro ayni paytda an’ana va izdoshlikning samarasidir. Chunki hikoyatga asos qilib olgan g‘oya va voqeaning badiiy talqinini yaratishda N. “Masnaviy”dagi hikoyatlardan biriga tayangan. R.J. hikoyatida ham bir odam Azroildan qo‘rqib, Sulaymon saroyiga yugurib keladi. Qo‘rquvdan titrayotgan bu odamdan Hazrati Sulaymon “Nima bo‘ldi? Nechun buncha qaltiraysan?” – deb so‘raydi. Shunda u:

Guft: Azroyil dar man inchunin,
Yak nazar andoxt pur az xashmu kin.

Maz.: Azroil menga qahr va g‘azab bilan qaradi, – deydi. “Xo‘sh, mendan nima istaysan?” Sulaymonning bu so‘rog‘iga: “Shamolga ayt. Meni zudlik bilan Hindistonga yetkazsin”, – deydi:

To maro z-in jo ba Hinduston barad,
B-o‘ ki banda k-on taraf shud jon barad.

Bu kimsaning holati N. “qahramonining” holatidan umuman farqlanmaydi. Chunki ularning har ikkalasining ham ko‘nglida o‘lim tahlikasi g‘olibdir. Ikkalasi ham Sulaymon mulkidan qochishni najot deb bilishadi. Farq shundaki, N. hikoyatidagi kimsa jon topshiradigan manzili Hindiston ekanligini bilmaydi, lekin o‘zi sezmagan holda Hindistonga borib to‘xtaydi. R.J. tasviridagi kishi esa, Hindistonni o‘zi tanlaydi, biroq ishning oqibati nima bo‘lishini bilmaydi. Ularning ikkalasi ham Shamol xizmati va tezligiga umid bog‘lashadi. R. J. hikoyati 17 baytdan tarkib topgan bo‘lsa, N.niki 24 baytni tashkil etadi. N. Sulaymon payg‘ambar ta’rifiga 5 bayt bag‘ishlagan bo‘lsa, R.J. uning nomi va saroyini tilga olish b-n kifoyalanadi. Shuningdek, voqea bayonida R.J. izchillikka qat’iy rioya qilmaydi. O‘zining umumiy uslubiga muvofiq ravishda lirik chekinish tarzida masalaning tub mohiyatini anglashga yaqindan yordam beradigan falsafiy-didaktik mulohazalarini ifodalaydi va uning oxirgi satrida (jami 4 misra) ulug‘ shoir “Hirs-u ko‘shishro tu Hinduston shinos”, ya’ni o‘limdan qochish hirs-u harakatini sen Hindiston deb bil, – deya ta’kidlaydi. Bundan anglashiladiki, Hindiston so‘zi zamirida hirs va tahlika oloviga ishora qiluvchi ramziy ma’no ham singdirilgan. Demak, N. hikoyatida ham Hindiston so‘zi faqat joy nomini anglatish maqsadida qo‘llanilmagan. Insonni qo‘rquv va vahimaga soladigan narsa aslida nafs va hirsdir. R.J. ham, N. ham she’rxon diqqat-e’tiborini xuddi shu masalaga jalb qilishgan. N.ning fikrlari R.J. hikoyatidagi so‘zlarning davomiga o‘xshab ko‘rinsa-da, ular ma’noni rivojlantirish, kuchaytirish, tiriklik to‘g‘risida yanada chuqurroq o‘ylashga undash quvvati b-n ahamiyatli.

“L.T.” dostonida Hudhudning ilohiy ishq qudrati va go‘zalligiga doir so‘zlarining isboti sifatida bir hikoyat keltiriladi. Bu hikoyatni shartli ravishda “Arastu va uning oshiq muridi” deb nomlash mumkin. Y.E.Bertels bu hikoyatning favqulodda qiziqarli ekanligini ta’kidlab, uning manbasini aniqlay olmaganligini e’tirof etarkan: “Hikoyatning tugun va yechimi ma’lum darajada R.J. “Masnaviy”sidagi birinchi hikoyatni eslatadi, lekin bunda mavzuning ishlanishi mutlaqo boshqacha” – deydi. Haqiqatan ham, “L.T.”-dagi ushbu hikoyat juda chuqur mazmunga ega bo‘lib, asarning tub mohiyatini to‘g‘ri anglashga u yaqindan yordam beradi. Bundan tashqari, Y.E.Bertels hikoyatning “Masnaviy”dagi ilk hikoyatga o‘xshashligini ham, talqindagi o‘ziga xoslikni ham ta’kidlashda aslo xato qilmagan. Hikoyatning manbasiga kelsak uning zamini juda uzoq tarixga borib taqaladi. Furo‘zonfarning ta’kidiga ko‘ra, bu hikoyatni Shayx Farididdin Attor Nizomiyning “Iskandarnoma” dostonidan o‘zlashtirgan va Arastu hamda Arshemidas nomini tilga olmasdan (ustoz va shogird deb) “Musibatnoma” asariga kiritgan. Olimning taxminicha, R.J.

ning mazkur hikoyati bevosita “Musibatnoma”ga bog‘lanadi. Abdulboqi Gulpinorlining xulosasi bo‘yicha esa R.J. hikoyatni “Musibatnoma”dan emas, to‘g‘ridan to‘g‘ri “Iskandarnoma”dan olgan. N., albatta, Nizomiy “Xamsa”si b-n ham, Attorning “Musibatnoma”si b-n ham juda chuqur tanish bo‘lgan. Ammo R.J. hikoyatida na Nizomiy, na Attor hikoyati b-n bog‘lanmaydigan o‘rinlar borligini ham bilgan. N.ning R.J.ga yaqinligi, aniqroq qilib aytganda, izdoshligi ana shu hikoyatda yaqqol namoyon bo‘ladi. Chunonchi, Arastu ham xuddi R. J. hikoyatidagi hakimga o‘xshab bir dori tayyorlaydi va shogirdining mahbubasiga ichiradi:

Maxfiy ondin o‘zni tutti chorag‘a,
Berdi muhlik dorue mahporag‘a.

Kim yiqildi ohu afg‘on tortibon
Dam-badam ul notavonlig‘ ortibon.

Shogird yorini tuzatishga har qancha urinmasin, hech chora topmaydi va oxiri ustoziga murojaat qiladi:

Ko‘rdi chun ustod andoq ehtiyoj -
Keldikim bemorg‘a qilg‘oy iloj.

Dedikim: “Qo‘p, sen bu kun xidmatqa bor,
Tur Skandar hazratida bandavor.

Men mudovo aylayin bemoringa,
Yetkuray sihhat parivash yoringa”.

Shundan so‘ng Arastu me’dani tozalaydigan behad kuchli dori tayyorlab, uni bemorga ichiradi va mahramlariga uning holidan xabardor bo‘lib turishni buyuradi. Qiz esa ko‘p o‘tmay uzluksiz ravishda qayt qiladi. Oxiri:

Xastaning tob-u tavoni qolmadi,
Jismida bir qatra qoni qolmadi.

Balg‘am-u safrovu savdo birla qon,
Daf’ o‘lub, bo‘ldi sumanbar notavon.

Gap shundaki, R.J. hikoyatidagi sharbat ichirilgan zargar ko‘p muddat o‘tmay tanib bo‘lmas qay ahvolga tushgan bo‘lsa, N. hikoyatidagi ma’shuqa ham xuddi shunday xunuk va yoqimsiz bir suratga aylanib qoladi. Yigit uni:

Tanimay dedi: – “Mening yorim qani?
Sarvbo‘yluq lolaruxsorim qani?”.

Bu savolga hech kim javob bermaydi. Arastu esa, nozanin qayt qilgan idishni keltirishni buyuradi:

Boribon kelturdilar chun zarfni,
Kim eshitmishtur bu yanglig‘ harfni.

Muxtalif axlot ila mamlu edi,
Muhliku makruh lavni bu edi.

Xullas, ustozning qat’iy hukm-u isboti bo‘yicha yigitni mubtalo va “oshiq-u vola” etgan idishdagi mana shu narsalar edi. U haqiqatni anglagach, ustozi oldida qattiq xijolat chekib, ilohiy ishq zavqidan benasib bo‘lganligi u-n pushaymon bo‘ladi. Demak, R.J.ga o‘xshab N. hikoyatida ham majoziy ishq butunlay inkor etilmagan, balki haqiqiy ishqqa erishmoq u-n nafs va nafsoniy ehtiyojlarni yengish, poklanishning nihoyatda og‘ir mashaqqatlariga bardosh bera bilish tajribasiga e’tibor qaratilgan. Y.E.Bertels o‘zining 1927-y.da yozilgan “Navoiy va Attor” nomli fundamental tadqiqotida “Mantiq ut-tayr” va “L.T.” dostonlarini o‘zaro qiyoslab, ular o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlarni ko‘rsatib berish barobarida “L.T.”dagi ayrim hikoyatlarning manbalariga ham ishora qiladi..

Qushlar timsolining “L.T.” syujetida tutgan o‘rni va vazifasiga qarab Sh.Sharipov ularni uch guruhga ajratadi. Bular: umumiy qushlar, aniq qushlar va o‘ttiz qush obrazi. Zero, bunday tasnif va tasvirdan N. o‘zi yashagan davrga mansub turli xil insonlarining allegorik obrazlarini chizib berishni ko‘zlaganligini tadqiqotchi to‘g‘ri ta’kidlaydi. Mavlononing “Masnaviy”siga kelsak,

hudhud, to‘ti, qarg‘a, qarchig‘ay, burgut, tovus, laylak, o‘rdak, xo‘roz, boyo‘g‘li, tovuq kabi qushlar ko‘plab hikoyat va qissalarning asosiy obrazlari sifatida “faoliyat” ko‘rsatadi. Bulardan to‘ti, qarg‘a, qarchig‘ay, o‘rdak va tovusning “Masnaviy”dagi tasviri boshqa qushlarnikidan ancha farqlanadi. Chunonchi, “Mantiq ut-tayr” va “L.T.”da markaziy o‘rinni egallagan bulbul, foxta, musicha, kabk, kabutar, humo singari qushlar “Masnaviy”da umumiy tarzda, nari borsa, bir-ikki baytda eslab o‘tiladi, xolos. Lekin bulardan ko‘zlangan asosiy maqsad bitta: ramziy-majoziy yo‘l bilan insondagi ruh, aql, nafs, turli tuyg‘u va qarashlar, zohiriy va botiniy olamdagi his va holatlarni aks ettirish. Shu ma’noda “Masnaviy”ga alohida e’tibor berishga to‘g‘ri keladi.

M-n, N. dostonida Xo‘roz timsoli shahvat va shahvatparastlikka munosabat ehtiyoji tufayli olib kirilgan. Bizningcha, N. bunda bevosita R.J. nuqtayi nazariga suyangan va “Masnaviy” so‘zlaridan ilhomlangan. N.ning “L.T.” dostonida To‘ti Hudhud murojaat qilgan va Simurg‘ huzuriga da’vat etgan birinchi qushdir. Shuningdek, To‘ti asarda yo‘l azobi va mashaqqatlaridan ojiz qolib, hammadan avval Hudhudga uzr bildirgan qush sifatida tasvirlanadi. F.Attorning “Mantiq ut-tayr”idagi To‘ti tasvirida esa “L.T.” dostonidan ko‘ra biroz boshqacha manzara ko‘zga tashlanadi.

N. “M.Q.”da qalam ahlini haqiqiy ishqni kuylagan shoirlar, o‘z ijodida haqiqiy va majoziy ishqni omuxta qilgan shoirlar, majoziy ishqni tarannum etgan shoirlar tarzida uch guruhga ajratar ekan, R.J.ni birinchi toifaga kiritadi. Uni qoyili “Masnaviyi ma’naviy” va haqiqat dengizining g‘avvosi deb ulug‘laydi. R.J. asarlari asrlar davomida o‘zbek shoirlariga ta’sir o‘tkazib kelgan, masnaviyxonlik xalqimiz o‘rtasida keng tarqalgan. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan “Masnaviyi ma’naviy”ga oid sharhlar va undan tarjima qilingan turli parchalar buning isbotidir. Istiqlol yillarida R.J. hayoti va ijodiga qiziqish yanada kuchaydi. Sh.Shomuhamedov, J.Jabborov, A.Mahkam, O.Bo‘riyev, N.Muhammad, E.Ochilovlar shoirning turli janrdagi she’rlaridan namunalarni tarjima qilgan bo‘lsalar, J.Kamol “Masnaviyi ma’naviy” tarjimasini nihoyasiga yetkazdi va u qisqa muddatda 3 marta chop etildi (2001–2004, 2010, 2011). Shuningdek, “Ichindagi ichindadir” asari ham o‘zbek o‘quvchilarining mulkiga aylangan (U.Abduvahob tarj., 1997). N.Komilov, H.Homidiy, I.Haqqul, R.Jumayev, E.Ochilovlar mutafakkir shoir hayoti va ijodi bo‘yicha tadqiqotlar olib borganlar.

***Ad.**: Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Мавлоно Жалолиддин Муҳаммад Балхий. Куллиёти Шамс Табризий. Иборат аз 2 жилд. – Теҳрон, 1381 (ҳ.-ш.); Мавлоно Жалолиддин Муҳаммад Балхий. Маснавийи маънавий. – Теҳрон, 1380 (ҳ.-ш); Жалолиддин Румий. Учмоққа қанот йўқ вале учгайман. Ривоятлар ва рубоийлар (Ж.Камол таржимаси.). – Т., 1994; Инжулар уммони. – Т., 1988; Жалолиддин Румий. Ичиндаги ичиндадир. – Т., 1997; Ишқ дафтари. Рубоийлар (Э.Очилов таржимаси.). – Т., 2000; Жалолиддин Румий. Маснавийи маънавий. 1-6-жилдлар. – Тошкент-Теҳрон, 2002–2004; Жумаев Р. “Маснавий” ва “Лисон ут-тайр”-даги ҳикоятларнинг қиёсий талқини. ф.ф.н. дисс. – Т., 2018.*

R.J., E.O.

RUJU’ (ar. – qaytish) – tasvir davomida bir ta’rifdan qaytib, uning o‘rniga yanada yuksakroq ta’rifni keltirishga asoslangan ma’naviy, she’riy san’at. Bunda shoir fikr-u kechinmalarini ohorli tashbehlar va betakror obrazli iboralar b-n badiiy talqin qilar ekan, go‘yo ular o‘z maqsadini haddi a’losida ifodalash u-n ojizlik qilayotganday, ularni inkor etadi va o‘rniga yanada yorqin va nafis obraz va sifatlarni taqdim etadi va bu b-n tasvirni yanada kuchliroq bayon qilib, mukammal nuqtaga yetkazadi.

R. misra, bayt, band, hatto, undan-da yirikroq matn doirasida amal qilishi mumkin. N. ijodida uning barcha ko‘rinishlariga guvoh bo‘lamiz. M-n, Laylining maktubidan olingan quyidagi misolda u bayt doirasida amal qilgan:

Miskin meni zori poybasta,
Yo‘q-yo‘qki, zaifi poshikasta.

Mana bu g‘azalda esa birinchi va ikkinchi baytda keltirilgan ta’rif-tavsiflar muallifni qoniqtirmay, uchinchi baytda ularning barchasidan voz kechib, butunlay yangi tashbeh va sifatlarni keltiradi. Ayni jihatdan V.Rahmonov R.ni orqaga tisarila turib, oldinga sakrash tarzida baholaydi.

Subh yetkurdi sabo gulbargi xandon mujdasin,
Yo ko‘ngul topti Masih anfosidin jon mujdasin.

Yo falak berdi yig‘i ko‘r aylagan Ya’qubning
Ko‘zlari ochilmoq uchun Mohi Kan’on mujdasin.

Ne guli xandon, ne Isodur, ne Yusuf Mujdasi,
Topti bir mahjur o‘lar holatda jonon mujdasin.

R.ning har bir janr imkoniyatlariga qarab qo‘llanish doirasi har xil bo‘ladi. Ko‘rib o‘tilganidek, g‘azalda bayt va baytlararo amal qilsa, aytaylik, ruboiyda u misrama-misra rivojlanib borishi mumkin. Masnaviyda esa u bir necha bayt doirasida ham keladi. M-n, Husayn Boyqaro “Risola”sidagi N. ta’rifida bitilgan ruboiyda birinchi misraga nisbatan ikkinchisi, ikkinchisiga nisbatan uchinchisi, uchinchisiga nisbatan oxirgisi R. hisoblanadi:

Erur so‘z mulkining kishvarsitoni,
Qayu kishvarsiton, Xusravnishoni,

Dema Xusravnishonkim, qahramoni,
Erur, gar chin desang, sohibqironi.

“Jonda jonparvar so‘zidurmu, labi xandonimu?”, “G‘amimnimu dey yo beg‘am elning mojarosinmu?” kabi o‘nlab g‘azallari R. san’ati asosida yaratilgan.

Dostonlarida esa N. R. san’atini ketma-ket qo‘llash orqali uning zanjirli ko‘rinishini hosil qiladi. M-n, Farhodning tug‘ilishini shunday tasvirlaydi:

Shabistonda tug‘di bir yangi oy,
Yangi oy yo‘qki, mehri olamoroy.

Ochildi bog‘ida bir otashin vard,
Demaykim vard, balkim shu’lai dard.

Kiyurdi ilgiga davron nigine,
Nigin o‘rnida la’li otashine.

Shu tariqa ta’rif-tavsiflar o‘rin almashib, bir-birini inkor etaroq rivojlanib boradi. Agar tasvirlanayotgan obyekt tanqid qilinayotgan bo‘lsa, N. qoralanayotgan shaxsni bir-biridan tuban so‘zlarni qo‘llash orqali fosh etadi.

Meni ishqdin man’ etar soda shayx,
Dema soda shayx, aytkim, loda shayx.

Ma’lum bo‘ladiki, R. ifodalilik, uslubiy-ritmik xilma-xillik va ma’no jozibasini kuchaytirishga muhim hissa qo‘shadigan ma’naviy san’atdir. U tashbeh, mubolag‘a, takror, tazod kabi san’atlar b-n omuxta holda qo‘llanadi.

***Ad.**: Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-жилдлар. – Т., 2011; Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Л., 1972; Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Т., 2001; Исъҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т., 2006; Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2010; Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойи ус-санойиъ. – Т., 1981.*

E.O.

RUKN (ar. – ustun) – aruzda hijolarning muayyan tartibda birikishidan hosil bo‘ladigan ritmik bo‘lak. Barmoq vaznida she’rning har bir misrasi turoqlarga bo‘linganidek, aruzda R.lar-

ga ajratiladi. Lekin hijo bo‘g‘indan farqlangani kabi, R. ham turoqdan farqlanadi. Barmoq vaznida turoq tugagan joyda so‘z ham tugaydi, aruzda esa R. tugasa ham, so‘z davom etishi mumkin.

E-mas o-son / bu may-don ich- / ra tur-moq,
Ni-zo-miy pan- / ja-si-g‘a pan- / ja ur-moq.

V – – – / V – – – / V – –
mafoiylun / mafoiylun / fau(v)lun

Hazaji musaddasi mahzuf

Ko‘rinib turganidek, bu yerda 2-, 4-, 5-R. larda R. tugasa ham so‘z davom etgan.

Aruzda baytlardagi ritmik bo‘laklarni o‘lchash u-n qo‘llanadigan 8 ta asliy R. mavjud: 1) foilotun (– V – –); 2) mafoiylun (V – – –); 3) fau(v)lun (V – –); 4) foilun (– V –); 5) mustaf’ilun (– – V –); 6) mutafoilun (V V – V –); 7) mafoilatun (V – V V –); 8) maf’u(v)lotu (– – – V). Ular qisqa va cho‘ziq hijolarning muayyan tartibda birikishidan hosil bo‘lgan bo‘lib, lug‘aviy ma’noga ega emas. Bular asosiy R.lar, ya’ni asllar bo‘lib, ularning o‘zgarishga uchrashi – zihofidan vujudga kelgan R.lar far’iy (tarmoq, shaxobcha) R.lar deb yuritiladi.

Asosiy R.lar baytlardagi turli-tuman hajm va shakldagi ritmik bo‘laklarni o‘lchash u-n kifoya qilmagani sababli ularni har xilda o‘zgartirib, ko‘plab tarmoq R.lar (furu’lar) hosil qilingan. Boburning yozishicha, ular shaklan 40 xil bo‘lib, jami 96 tadir. O‘zbek she’riyatida ulardan 22 tasi qo‘llangan.

R.lar baytdagi o‘rniga ko‘ra ham turlicha nomlanadi: 1-misraning 1-R.i sadr, oxirgi R.i aruz, 2-misraning 1-R.i ibtido, oxirgisi – zarb, sadr b-n aruz, ibtido b-n zarb orasidagi boshqa R.lar hashv deb ataladi.

Baytlar 4 tadan 36 tagacha R.dan tashkil topishi mumkin. 4 R.li baytlar murabba, 6 R.liligi musaddas, 8 R.lisi musamman, 12 R.lisi mustazod, 16, 20, 30, 36 R.lilari esa mutatavval (ko‘p R.li) deb yuritiladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Мухтасар. – Т., 1971; Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т., 1998; Олимов М. Рисолаи аруз. – Т., 2002.*

E.O.

RUS – etnonim. R. atamasi N. asarlarida millat, xalq yoki jug‘rofiy hudud ma’nosida uchraydi. “S.I.” dostonida N. Iskandarning taxtga chiqish tarixini bitar ekan, otasi Faylaqus o‘shanda Rum va R. o‘lkasiga malik ekani xabarini beradi. Shoir dostonning XXIII bobida Iskandar bir-bir egallagan yetti iqlimdagi mamlakatlarni sanar ekan, Os va R. tomon yurish qilganda, shohning haybat-u shijoatidan u yerdagilarning qo‘rquvdan sarg‘ayishlarini kahraboga o‘xshatadi:

Chu ozim bo‘lub jonibi Os-u Rus,
Bo‘lub yuzlari vahmidin sandarus.

“S.I.” dostonidan olingan mana bu baytda ham Rus eli tilga olingan:

Juvong‘orida erdi Bartos-u Rus,
Falak xingidek barcha tund-u shamus.

Ma’lum bo‘lishicha, Iskandar Doroga qarshi jang maydonida askarlarini safga tizar ekan, qo‘shinining juvong‘origa, ya’ni chap qanotiga Bartos va R.lardan iborat harbiylarni joylashtiradi. Bu b-n N.ning R. xalqini jangovar insonlar bo‘lganiga ishora qilsa, Iskandarning adolat o‘rnatish maqsadidagi yurishlari, shuningdek, el-u yurt manfaati yo‘lidagi xayrli ishlarida, jumladan, oddiy xalq boshiga cheksiz ofat va vayronagarchilik keltiruvchi yovuz kuch – ya’jujlar yo‘liga g‘ov-to‘siq sifatida tiklangan ulkan devor qurilishida rus hunarmand, ustalarining ham faol ishtiroki nazarda tutiladi:

Kishilar yibordiki, har marz-u bum,
Farang o‘lsun-u Rus, yo Shom-u Rum.

N. “T.A.H.” asarida Iskandarning R.lar b-n tarjimayi holiga oid yana bir muhim xabarni beradi: “Yofasni payg‘ambari mursal debdurlar. Va ani yeti o‘g‘li bor erdi: Buka, Xizr, Suqlob, Rus, Bik, Chin, Kamo. Ba’zi sekiz o‘g‘ul debdurlar va sekizinchi Torax debdurlar. Va Iskandar Zulqarnayn Yofasning to‘rtinchi o‘g‘lidur, Rus naslidin”.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

A.A., S.O‘.

RUSTAM (laqabi Tahamtan) – Sharq adabiyotida Rustami Doston nomi b-n mashhur afsonaviy qahramon, bahodirlar timsoli. N. “T.M.A.” asarining peshdodiy va kayoniylar b-n bog‘liq tarixiy tasvirlarida R.ni bot-bot tilga olgan. Xususan, R. nomini Manuchehr, Afrosiyob, Girshosb kabi peshdodiy hamda Kaykovus, Kayxisrav, Gushtosb, Baxman, Ozarmduxt singari kayoniy hukmdorlarga bag‘ishlangan zikrlarda uchratish mumkin. Ularda R.ning nasabi, bahodirligi, kurashlari, g‘alabalari, pahlavonlik, sipohsolorlik laqablarini ta’sirli shaklida tasvirlashga harakat qilgan. N. yozgan ma’lumotlar ma’lum ma’noda Firdavsiyning “Shohnoma” dostonida R.ga bag‘ishlangan qismlarga hamohangdir. Buni N.ning o‘zi “T.M.A.”ning R. b-n bog‘liq ayrim ma’lumotlarida ta’kidlab ko‘rsatgan.

“T.M.A.”ning “Manuchehr” fiqrasida R.ning otasi, tavalludi haqida gap boradi: “Va Zolkim, Rustamning atosidur, aning zamonida mutavallid bo‘ldi. Va Manuchehr yuz yigirmi yil podshohliq qildi”.

“Girshosb” fiqrasida Zol R.ning otasi ekanligi haqida qisqa xabar bitilgan. N. mazkur xabarini “Tarixi guzida”da bitilgan ma’lumot b-n to‘ldirishga harakat qilgan. “Afrosiyob” fiqrasida esa Som Narimon vafoti, uning ta’ziya marosimiga R. otasi Zol b-n ishtirok etgani xususida alohida xabar bitgan: “Va ul fursatda Som Narimon o‘tub, o‘g‘li Zol Rustam atosi aning ta’ziyatig‘a mashg‘ul erdi, ...”.

N. asarning “Ikkinchi tabaqa kayoniylardur” nomli qismida to‘qqizta hukmdor nomini birma-bir sanab ko‘rsatar ekan, unda R.ga “Rustamg‘a jahonpahlavonlig‘ laqabin berib, sipohsolor qildi” degan lavha keltirgan.

Muallif R. haqida eng ko‘p ma’lumotni asarning “Kaykovus” fiqrasida bitgan va ma’lumotlarni yana Firdavsiyning “Shohnoma”sida aytilgan ayrim xabarlar b-n dalillashga harakat qigan. Chunonchi: “Firdavsiy “Shahnoma”da debdurkim, Haftxon yo‘li bila borib, oni qutqordi. Yana biri Yamanda Zulazor Himyarikim, Yaman podshohi erdi, aning g‘aflati jihatidin ani jami’ arkoni davlatini tutub, band qildi. Anda ham Rustam borib, Zulazor bila musolihag‘a qaror berib, Sudobakim Zulazorning qizi erdi, Kaykovusqa qulub, ani va elin chiqordi. Bu ishlar shukronasig‘a o‘z xoharzodasinkim, oti Mehrinoz erdi, Rustamg‘a berib, ani sipohsolorlig‘din saltanat poyasig‘a yetkurdi”.

Ma’lumki, “T.M.A.”da to‘rt nafar ayol hukmdorlar haqida ham fiqra bitilgan. Shulardan Ozarmduxt malikaga bag‘ishlangan alohida fiqrada R. haqida ham ma’lumotlarni o‘qiymiz. “M.L.” asarida Sulton Husayn Boyqaroni tilga olar ekan, uni faxr tuyg‘usi b-n “Rustami doston” deb R.ga qiyoslaganini ko‘rish mumkin.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

B.R.

RUSTAMOV Alibek (1931-2013) – manbashunos, tilshunos, adabiyotshunos, turkolog, tarjimon, n.shunos. 1931-y. 15-mayda Toshkent viloyati Yangiyo‘l tumanida tug‘ilgan. 1955-y.da Toshkent davlat universiteti (ho-

zirgi O‘zMU)ning Filologiya fakulteti (eron-afg‘on bo‘limi)ni tamomlab, faoliyatini O‘zR FA Sharqshunoslik institutida ilmiy xodimlikdan boshlagan. 1959-y. “Mahbub ul-qulub” asarida Navoiy tilining ayrim grammatik xususiyatlari” mavzusida nomzodlik, 1968-y. “Alisher Navoiy tilining fonetik va morfologik xususiyatlari” mavzusida doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilgan. Katta ilmiy xodim (1960), prof. (1968), akad. (1995). “El-yurt hurmati” ordeni sohibi.

Olim butun umrini o‘zbek tilshunosligi rivojiga baxshida etib, o‘zbek tilining izohli lug‘atini nashr etish borasida jonkuyarlik qildi. Lug‘atga N. davridagi, hatto undan ilgarigi yozma manbalarda mavjud so‘zlardan tortib to hozirgi baynalmilal atamalargacha kiritilishini yoqladi. R.A.ning fikricha, o‘zbek tilining so‘z va iboralari zamon-u makon nuqtayi nazaridan cheklanmay yig‘ilsa, dunyodagi eng ko‘p so‘zli lug‘atlardan ham kattaroq lug‘at tuzish mumkin. R.A. tarjimon sifatida Atoulloh Husayniyning “Badoye’ us-sanoye” asarini forschadan o‘zbekchaga, N.ning “M.Q.” va Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” asarini (2010-yil Moskvada nashr etilgan) ruschaga tarjima qilgan. “Mahmud Zamaxshariy” (1971), “Aruz haqida suhbatlar” (1972), “Ishlab chiqarish estetikasi” (1973), “Qofiya nima?” (1976), “Navoiyning badiiy mahorati” (1979), “Navoiy tilining grammatik xususiyatlari” (1984), “So‘z xususida so‘z” (1987), “XV–XIX asrlar o‘zbek tili morfologiyasi” (1990); “Boburiylar merosi” (A.Ibrohimov b-n birgalikda 1998); “Bismillohning ma’nosi”, “Hazrat Navoiyning ma’naviy va suvariy sharoblari” (2013), “Hazrat Navoiyning ma’naviy olami” (2014) kabi qator kitoblar muallifi. “So‘z xususida so‘z” kitobida shoirlik haqida shunday yozadi: “Shoir” so‘zining lug‘aviy ma’nosi “tuyg‘uchi” bo‘lib, urfiy ma’nosi she’rchidir. “She’r”ning lug‘aviy ma’nosi “tuyg‘u” bo‘lib, urfda, asosan, hissiyot va qisman tafakkur, qisqacha qilib aytganda, zavq natijasida vujudga kelgan badiiy ifodadir. Ammo shoir so‘zi o‘zining bildirmishi nuqtayi nazaridan teran mazmunga ega bo‘lib, maxsus fazilatga ega bo‘lgan kishini bildiradi. Bunday kishi birinchi navbatda inson darajasiga erishishga harakat qilishi shart. Bu faqat shoirga emas, hamma u-n kerak. Lekin bu bo‘lmasa, shoirlikning poydevori, sodda qilib aytganda, tagi bo‘sh bo‘ladi. Poydevori bo‘sh imorat tez yemirilganidek, insoniy asosi sust bo‘lgan shoirning she’ri ham, o‘zi ham tez shikast yeydi”. Olim o‘z kitobida komil inson va yetuk shoir timsolida N.ni ta’rif-u tavsif etadi.

Ad.: *Рустамов А. Маҳмуд Замахшарий. – Т., 1971; Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Т., 1979; Рустамов А. Навоий тилининг грамматик хусусиятлари. – Т., 1984; Рустамов А. Сўз хусусида сўз. – Т., 1987; Рустамов А. Адиблар одобидан адаблар. – Т., 2003.*

B.R., Sh.R.

RUSTAMOV Ergash (1925, Qozog‘iston Respublikasi, Chimkent – 1980, Toshkent) – adabiyotshunos, taniqli matnshunos. Ikkinchi Jahon urushi qatnashchisi (1941–43), O‘rta Osiyo davlat universitetining Sharq fakultetini imtiyozli diplom b-n tugatgan (1953). “XV asr o‘zbek adabiyotini boshqa Sharq adabiyotlari bilan qiyosiy o‘rganishning ba’zi masalalari” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan (1968).

1964–76-yy.da R.E. O‘zR FA Til va adabiyot institutida katta ilmiy xodim lavozimida faoliyat ko‘rsatib, “O‘zbek adabiyoti” ko‘p jildligi u-n Lutfiy, Amiriy, Yaqiniy, Nodira kabi shoirlarning adabiy merosidan o‘nlab namunalarni ishonchli manbalar asosida tayyorlab bergan. Shuningdek, “O‘zbek adabiyoti tarixi” besh jildligida ham R.E.ning “XV asr o‘zbek adabiyotida munozara”, “Sakkokiy” kabi ilmiy ishlari o‘rin olgan. Ahmad Yassaviy hikmatlariga bag‘ishlangan maqolalari birinchilardan bo‘lib chop etilgan. R.E. ozar shoiri Imodiddin Nasimiy hayoti va ijodiga bag‘ishlangan “XV asr shoirlari va xurufizm” nomli tadqiqot muallifi. Shuningdek, 1958–63-yy. davomida Ato-

iy g‘azallarini so‘zboshi va izohlar b-n (1958–1960), Yaqiniyning “O‘q va yoy munozarasi” matnini rus tiliga tarjimasi b-n, Lutfiy asarlarini rus va o‘zbek tillariga kirish maqolalari b-n (1959–1961) chop ettirgan. A.Bombachi “Turk adabiyoti” asarini yaratishda R.E. ishlaridan foydalangan.

R.E. n.shunos sifatida bir qator ilmiy ishlarni yaratdi: “XV asr I yarmidagi o‘zbek she’riyati” monografiyasining bir bo‘limi “Navoiy o‘z salaflari g‘azallari haqida” deb nomlangan bo‘lib, unda N.ning “M.N.”, “M.L.”, “H.P.M.” nasriy asarlaridagi Sakkokiy, Atoiy, Lutfiy, Gadoiylar ijodiga bergan bahosi, mazkur shoirlarning she’rlari Hirot va uning atrofida ham mashhur bo‘lgani aytiladi. Olim shu tadqiqotining III bobida N.ning “M.N.” va “M.” asarlarida zikr etilgan dalillar asosida Amiriy va Yaqiniylar va ularning “Bang va Chog‘ir”, “O‘q va yoy munozarasi” haqida fikr yuritadi.

“Alisher Navoiy biografiyasidan sahifalar” maqolasida esa R.E. shoir hayotining Samarqand davriga to‘xtaladi. “O‘zbek adabiyoti tarixi” besh jildligining II tomi u-n yozilgan “Navoiy qasidalari” maqolasida N.ning o‘zbek tilida yozilgan “H.”, “D.F.”dan o‘rin olgan olti qasidadan iborat “Sittayi zaruriya” va to‘rt qasidadan iborat “Fusuli arbaa” qasidalarini atrofilicha tadqiq etadi. N. qasidalari fors-tojik adabiyotining yirik namoyandalari Hoqoniy, Anvariy, Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy qasidalari qatorida munosib o‘rin egallaganini asoslashga uringan. R.E., shuningdek, Y.E.Bertels “Tanlangan asarlar”ining “Navoiy va Jomiy” jildi tuzuvchisi va muharriri bo‘lib (1965), ustozining N. hayoti va adabiy faoliyatini mufassal yorituvchi monografiyasini, N.gacha Sharqda yaratilgan Iskandar haqidagi asarlar va N.ning “S.I.” dostoni, olimning N. dunyoqarashi, G‘arbiy Yevropa tillariga tarjima qilingan asarlari, “X.”sining qadimiy qo‘lyozma nusxasi haqidagi ilmiy maqolalari va taqrizlarini jamlagan. Kitobda kirish maqola, bibliografiya va ko‘rsatkichlar ham mavjud. R.E. kirish maqolasida Y.E.Bertels yetuk n.shunos va manbashunos sifatida talqin etilgan. R.E. o‘ziga xos bilimdonlik b-n n.shunoslikka ma’lum ulush qo‘shgan olimlardandir.

***Ad**.: Рустамов Э. Узбекская поэзия в первой половине XV века. – М., 1963; Рустамов Э. Странитса из биографий Алишера Навоий. Краткие сообщения ИНА, вып. 63, 1963; Бертелс Е.Э. Избранные труды. Навои и Джами. – М., 1965; Ўзбек адабиёти тарихи. 5 томлик, II том. – Т., 1977; “Зарубежная тюркология”, вып. 1. Изд. М, 1986 г. (А.Бомбачи. “Тюркские литературы. Введение в историю и стил”); Абдуғафуров А. Мирзааҳмедова М. Етук шарқшунос // Ўзбек тили ва адабиёти, 1987, №5.*

E.U.

RUH (ar.) – 1. jon, nafs, rahmat, nafas, xotira, tabiat, mijoz, ahvol. 2. Qur’on, Iso (a.s.), Jabroil (a.s.). Muhammad G‘iyosuddinning “G‘iyos ul-lug‘oti”da aytilishicha: “Ruh faqihlarga ko‘ra, ilohiy amrdan yaralgan jon, tabiblarga ko‘ra qalbda paydo bo‘lib, hayot va his-u harakatning sababchisi (manbasi) bo‘lgan latif buxor (tutun, bug‘) dir. Inson ruhi (joni) haqida Qur’oni Karimning “Isro” surasi 85-oyatda aytiladiki: “Ey Muhammad, Sendan ruhning haqiqati va kayfiyati to‘g‘risida savol qiladilar. Sen ularga javob berki: “Ruh Parvardigorning maxluqlari (yaratiqlari)dan bir maxluq (yaratiq)dir. Uning haqiqatini Xudodan boshqa zot bilmaydi. Sizlarda uni (ruhni) bilish uchun qobiliyat va iste’dod yo‘q. Chunki sizlarga Xudo tarafidan ruhga oid ozgina ilm berilgan, xolos”. Tasavvuf manbalarida R. – ilohiy bir nafas, amr olamidan (xalq olamidan emas) yaralgan, banda uning haqiqatidan biroz xabardor bo‘lgan ilohiy sir va Haqning tajalliysidir. R. – nabotiy R., hayvoniy R., insoniy R. va izofiy R. kabi turlarga ajratilgan. Nafs tushunchasi o‘z martabasi va maqomiga ko‘ra ba’zan R. ma’nosida qo‘llangan. Nafsi mutmainna, nafsi mulhama, nafsi komila kabi iboralar ham kamolga yetgan ruhni (jonni) bildiradi. Sharq g‘azalchiligida ma’shuqning ka-

moli nazarda tutilib, unga “Ey ruh!” deb murojaat etilgan o‘rinlar ham bor. N. dil izhorlarini, poetik xulosalarini bayon qilish u-n ruh so‘zining rang-barang ma’nolaridan istifoda etgan. Qiyomatda qayta tirilish va jonning Allohning azobini yo ne’-matini idrok qilishi haqida yozadi:

Mo‘min o‘l ajsod hashrig‘avu da’vo qilma ko‘p,
Kim azobu ne’matin tongla qilur idrok ruh.

R.ning jon ma’nosi qo‘llangan boshqa bir baytda, lirik qahramon ma’shuqning latofati – badandagi R. (jon)dan ham ko‘ra latif va nozik ekanligini e’tirof etadi:

Latofating erur ul hadg‘akim, badandin ruh.
Necha latif esa, sen ruhdinsen oncha latif.

N. “F.K.” devonidagi 280-g‘azalida “fano rasmini” qilmoqchi bo‘lgan kishiga o‘git beradiki, nafs va R. boshqa-boshqa narsalar, ularni bir-biriga aralashtirmaslik kerak. Chunki R. bir nurdirki, Haq nurini (martabasini, qadrini) oshirib boradi. Nafs bir zulmatdirki, qadri tubanlashib, tushib ketaveradi. R. rahmoniy bo‘lsa, nafs zulmoniydir. R. – Muso va Muhammad (a.s) ish-odatlarini qilsa, nafs – Fir’-avn va Abujahl kirdikorlarini yoyishga harakat qiladi. Ruh – tabiat, mijoz, ahvol mazmunida ham keladi:

Ruhumg‘aki maydin erdi har lahza futuh,
Nosih tili neshi qildi ani majruh.

Ba’zan R. va jon ma’noni kuchaytirish u-n sinonim sifatida yonma-yon keltiriladi. Yoki jon va hayot manbayi (tiriklik) sifatida ma’no tovlanishlarga ega bo‘ladi:

Qadi ruh ofati chobukluk ichra,
Beli jon rishtasi nozukluk ichra.

R. – xotira, xayol, botiniy ogohlik ma’nosidani ham ifodalaydi:

Ul chu farzand erur manga hosil,
Ruhum andin emasdurur g‘ofil.

Qaysi sa’b ish sariki yuz keturur,
Anga ruhum base madad eturur.

N. asarlarida R. ishtirokida yasalgan: ruhafzo (ruhlantiruvchi, jonlantiruvchi), sabukruh (xush-chaqchaq), shaddi ruh (musiqa maqomlaridan biri), qudsiy R. – (pok ruh), ruhoniy (ruhga mansub, jismoniy emas), ruhbaxsh (ruh beruvchi, jon kirgizuvchi), ruhgustar (ruh beruvchi), ruhoso (ruhni ko‘taruvchi, ko‘ngil ochuvchi), ruh ul-amin (Jabrail (a.s.), ruh ul-quds (muqaddas ruh) va h.k. ko‘plab so‘z tuzilmalari borki, ular vositasida R. so‘zning mazmun-mohiyati yanada kengayadi. M-n:

Ey Navoiy, fayzdin anfosim o‘lmish ruhbaxsh,
To Masihodek aloyiq zulmatidin pokmen...
Tahuro bodasi derlar erur jonbaxshu ruhafzo,
Magarkim choshniy ul mayg‘a
la’ling sog‘arindindur...

***Ad.**: Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик, 2-жилд. – Т., 1983.*

I.H., S.R.

“RUH UL-QUDS” (“Muqaddas ruh”) – N. ning fors-tojik tilidagi “S.Z.” qasidalar turkumining ilk qasidasi (1494). Hamd ruhidagi ushbu qasida Alloh taolo tavhidiga bag‘ishlangan. Unda butun olam yagona Ruh qudrati hosilasi ekani, bu qudrat eng kichik zarradan cheksiz koinot qadar har bir ashyo va harakatda namoyon bo‘lishi bayon etiladi.

Zihi ba xomayi qudrat musavvari ash’yo,
Hazor naqshi ajab har zamon az o‘ paydo.

Butun narsalarga surat bag‘ishlagan – yaratgan Qudrat qalamiga ofarin. Har lahzada bu Qalamdan ming-ming ajoyib naqsh – suratlar paydo bo‘ladi.

N.ning dostonlaridagi 1-boblarda va barcha “hamdiya g‘azallari”da bo‘lganiday, ushbu qasidada ham tavhid mohiyati tasavvufning vahdat ul-vujud ta’limoti asosida talqin etiladi. Ya’ni, olam yaxlit holda yakka-yu yagona Parvardigor qudrati b-n yaratilgan va ana shu Ruhi mutlaqning tajallisi tufayli mavjudlik topadi, u uzluksiz harakat va faoliyatdadir. “R.Q.” qasidasida ushbu beintiho Qudratning nimalarda ko‘rinishi, Uni idrok etish, anglash va qat’iy ishonch hosil qilish (imon) masalasi yoritilgan. Shu ilohiy qudrat tufayli yer-u osmon, oy va quyosh bir muntazamlikda harakat qiladi. Qatra ham, ummon ham, zarra ham, quyosh ham, 7 sayyora, 4 unsur, 9 qavat osmon, falak va malaklar mavjud. Uning lutfi b-n ojizlar qudrat topishi va aksincha, qudratlilar haqir-u nochor bo‘lishi mumkin. Layli va Uzroda husningni namoyon qilib, bu orqali Majnun va Vomiqni O‘zingga shaydo qilgansan, bulbulning shavqi-yu parvonaning talpinishi ham Sen uchundir, deydi shoir.

Qasida 12 qismdan iborat. 1-qism – nasibda (9 bayt) Ilohiy qudratga umumiy ta’rif berilsa, 2-qismda (20 bayt) odamning yaratilishi, odam xilqati haqida so‘z boradi. 3-qismdan 7-qismga (45 bayt) yilning 4 fasli ta’riflanadi. Zamon va makon tushunchalari, fasllarning almashinib turish qonuniyati, turfa ko‘rinishdagi rangli olam jilolarida Ilohiy qudrat sun’ va sinoatining namoyon bo‘lishi ko‘rsatiladi. Keyingi qismda bahor faslining qaytalanishi tasviridan sobit-u sayyoralarning ta’siri, sayyoralar haqidagi qadimiy tasavvurlar xususida fikr bayon etiladi. So‘ngra 12 burjning tavsifi keladi. Shu tasvir asnosida Arsh, Kursi, maloikalar ifodali baytlar b-n ta’riflanib, ana shu bepoyon olamda Payg‘ambarimiz Mustafo (s.a.v.) Me’roj kechasi yashin kabi sayr etib chiqqanlari va oniy bir lahzada Alloh huzurida bo‘lib, 90 ming kalomi ilohiyni tinglab, qaytib kelganlarida hali to‘shaklari sovumaganligi va bu Parvardigor ko‘rsatgan bemisl mo‘jizalardan ekanligi aytiladi:

Navad hazor suxan gufta bozgardondi,
Ki garm bud zi sayre chunin hanuzash jo.

Tarj.: To‘qson ming so‘z aytib, yana orqaga jo‘natding, Bu sayrdan qaytib kelganda, o‘rni hali issiq edi.

Shu tasvirlardan keyin N. Xudovandi Karimga iltijo etib, bir necha bayt munojot bitadi va oxirida qasidaning yozilish tarixi, nomlanishi haqida ma’lumot beradi. Qasida 132 baytdan iborat bo‘lib, quyidagicha tugaydi:

Umed on, ki ba anfosi qudsiyam baxshi
Takallume, ki saroyam payi tu hamd-u sano.

Tarj.: Umidim shuki, menga qudsiy nafas (nutq) bag‘ishlasang, toki Sening u-n hamdu sanolar aytsam.

“R.Q.” qasidasi – Alloh taoloning qudratida madhiya. U yaratgan olam ajoyibotlari tavsifi va tasviridir. Shoirning olamni yagona pok Ruh ijodi deb qabul qilgani, islomiy-so‘fiyona e’tiqodi har bir baytda chuqur ifoda topgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Девони Фоний. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ситтаи зарурия. – Т., 2008; Комилов Н. Хизр чашмаси. – Т., 2005.*

N.K., E.O.

RUDI SIND (Sind daryosi) – Hindiston yarim orolidagi daryo. Xitoy, Hindiston, Pokiston hududidan oqib o‘tadi. Tibet tog‘laridan boshlanib, Hind-Gang tekisligidan o‘tib, Arabiston dengiziga quyiladi. O‘rta asr Sharq adiblari uni Sind ataydilar, zamonaviy adabiyotlarda Ind (Hind) daryosi deb tilga olinadi.

N. ham o‘z asarlarida mazkur daryoga to‘xtalib o‘tgan. “S.I.” dostonining XXIII bobida u Iskandarning Kach va Makron viloyatlariga kirib borgani haqida yozadi va bunda Sind orqali o‘tganini ta’kidlaydi. Dostonning XLIII bobida N. Iskandarning Hind Royi tomonidan Beshayi Nigorda mehmon qilinishi epizodini tasvirlaydi hamda ushbu beshaning shimoliy tomondan Sind daryosi oqib o‘tganini yozadi:

Shimolida bu beshaning rudi Sind,
Janubda zohir bo‘lib shahri Hind.

Shoir Sind daryosida kemalarning suzishini osmonda suzib yurgan yangi oyga qiyos qiladi:

Bu rud ichra yuz kema sur'atnamoy,
Falak bahrida o'ylakim yangi oy.

Mazkur asarda Iskandarning hakimlardan yer kurrasini o'rab turgan suvlik haqida so'ragani va Suqrotning unga javob bergani hikoya qilingan. Bunda Suqrot yer yuzidagi barcha yirik dengizlar va daryolar haqida ma'lumot beradi, jumladan, Sind daryosini ham aytib o'tadi:

Hisob ichra to'rtinchidur bahri Hind
Ki, janbida bir nov suv rudi Sind.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; ЎзМЭ. 11-жилд. – Т., 2005; Гопал Сингх. География Индии. – М., 1980; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 2002.*

Q.E.

RO'ZI KOTIB – XIX asr birinchi yarmida Qo'qon xattotlik maktabining yirik namoyandalaridan biri. "L.T." va "X."ni birgalikda ko'chirgan (Bu nusxada "X."dan "H.A." tushirib qoldirilib, uning o'rniga "L.T." qo'yilgan): Toshkent: O'zR FAShI. Inv. 23. 428 varaq. Qo'qon shahrida 1240/1824-yilda kitobat qilib tugatilgan. Qo'lyozmada matn sahifaning asosiy qismiga (o'rtaga) va hoshiyaga joylashgan. Matn avval asosiy qismga (ikki ustunda) yozilib, so'ngra uning davomi hoshiyada yuqoridan pastga qarab qiyalatib yozib tushilgan. Matn asosiy matnda yirik, hoshiyada esa mayda xushxat nasta'liqda yozilgan. Qo'lyozma XIX asr Qo'qon xattotlik maktabida kitobat bo'lgan eng mo'tabar nusxalardan hisoblanadi. U nafis badiiy bezaklarga ega. Dostonlarning mazmuniga mos holda 47 ta ("L.T."ga 8 ta, "F.Sh."ga 9 ta, "L.M."ga 7 ta, "S.S."ga 10 ta, "S.I."ga 13 ta) miniatyura ishlangan. Bu miniatyuralarni XIX asr birinchi yarmida Qo'qonda yashagan naqqosh va musavvir Muhammad Amin Kosoniy (Munshiy) chizgan.

Ad.: *Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. – Т., 1991; Собрание восточных рукописей академии наук Узбекистан. VII. – Т., 1964.*

Muh.A.

RO'YINTAN (f. – bronza (temir tanli) – qadimgi Eronning kayoniylar sulolasiga mansub 5-hukmdori Gushtosbning o'g'li Isfandiyorning laqabi. Abulqosim Firdavsiy "Shohnoma"si qahramonlaridan biri. Naql qilishlaricha, uning tanasidan tig' ham, o'q ham o'tmas ekan. Taxt da'vosi qilgani u-n Gushtosb uni Durri Safid qo'rg'oniga mahbus qilgan edi. Lekin Afrosiyobning o'g'li Arjosb Turondan bostirib kelib, Luhrosbni o'ldiradi, qizlarini asir qilib, katta o'lja b-n qaytib ketadi. Girshosb unga qarshi Rustamni chorlaganda u kelmaydi. Nochor Isfandiyorni ozod qilib, mulk va'dasi b-n Arjosbga qarshi yo'llaydi. U Arjosbni o'ldirib, Girshosbning singillarini asirlikdan qutqarib keladi. Lekin u birato'la Rustamdan ham xalos bo'lmoqchi bo'lib, o'g'lini uning ustiga yuboradi. Isfandiyorning ko'ksida ko'z ilg'amas bir ko'zgu bor edi. Rustam otasi Zolning maslahati-yu Simurg'ning madadi b-n o'sha ko'zguni mo'ljallab o'q otadi va o'qi nishonga tegib, u halok bo'ladi. "F.Sh." dostonida N. Farhodning toblangan tanasi va kuchini Isfandiyorga nisbat beradi:

Qilib Ro'yintan o'z ilgini ranja,
Tutub chin panjasi ollig'a panja.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

E.O.

S

SABAB (ar. – chodirning arqoni) – sokin va mutaharrik harflarning muayyan tartibda birikishidan hosil bo‘ladigan ritmik birlik, juzv. Hijolarning o‘rniga ko‘ra S.lar hafif (yengil) va saqil (og‘ir)ga bo‘linadi. N.ning “M.A.”da yozilishicha, “Sababi hafif ul lafzedur mushtamil bir mutaharrik va bir soking‘a, andoqkim, may va nay va gul va mul. Va sababi saqil va ul lafzedur mushtamil ikki mutaharrik, andoqkim, yuzi va ko‘zi va xati va qadi”.

***Ad.**: Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

E.O.



“SAB’AI SAYYOR” — (“Yetti sayyora”) “X.” tarkibidagi 1484-y.da yozilgan to‘rtinchi ishqiy-sarguzasht doston. Asar shoh Bahrom va Diloromning sevgi sarguzashtlariga asoslangan. “S.S.”ning bosh qahramoni Bahrom tarixiy shaxs sifatida Eronning sosoniy hukmdori Varaxran V (420 – 438-yy.da podsholik qilgan) b-n bog‘liq. Bahrom shoh qulon (yovvoyi kiyik)ni ovlashga nihoyatda o‘ch bo‘lgani u-n xalq orasida Bahrom Go‘r (qulon) laqabi b-n shuhrat topgan. N. Bahrom Go‘r haqida “T.M.A.” asarida ma’lumot bergan. Bahrom timsoli dastlab forsiy adabiyotda Abulqosim Firdavsiy “Shohnoma”sida tasvirlangan. Keyinchalik Nizomiy va Dehlaviylar bu muhabbat tarixini mukammal bir doston shakliga keltirdilar. Turkiy tilda birinchi bo‘lib bu mavzuni N. “S.S.” dostonida yoritdi. Asar 38 bob, 5009 baytdan iborat bo‘lib, shundan 11 bobni muqaddima tashkil qiladi. Doston an’anaviy hamd bilan boshlanadi:

Ey siposing demakda el tili lol,
Elga til sendin o‘ldi tilga maqol.

Sendin insong‘a tor-u pudi jasad,
Jasad ichra ko‘ngul, ko‘ngulda xirad.

Allohning yaratuvchiligi, ko‘ngil boyligini ta’kidlagan shoir dostonning mazmun-mohiyatidan kelib chiqadi va N.ning shoirlik mahorati, har bir asarining o‘ziga xos betakrorligiga ko‘ra, bunda 7 raqamiga urg‘u beradi. Yetti falak, yetti gumbaz, yetti iqlim, yetti ko‘k, yetti yulduz kabilardan bahs etadi. Albatta, bunda ham shoir ishqning asl javhar ekanini sharhlaydi:

Ishq sensen dog‘i-yu oshiqsen,
Yana ma’shuqluqqa loyiqsen.

Ayni ma’shuqluqda jilvayi zot,
O‘zini ko‘rgali tilab mir’ot.

Dostonning 2-bobi munojotdir. Shoirning tavba-tazarrusi va umidlari munojotda aks etgan. Bunda asarining taqdiri, uning shuhrati olamga yoyilishi haqida yozadi. Me’roj tuni tasvirlari bu asarda ham o‘ziga xos ifodalarda ko‘rsatilgan. Jumladan, dostonda so‘zning sharifligi haqida to‘xtalinadi. Insonnning barcha yaratiqlar ichida mumtozligi so‘z b-n belgilanishi dalillanadi. “Kun” so‘zining barcha xalqning yaratilishiga asos bo‘lgani urg‘ulanadi. Keyingi bobda ham Nizomiy Ganjaviy haqida so‘z borarkan, so‘z

sehr va hikmati xususidagi fikrlarini davom ettiradi. Nazm va nasrning o‘ziga xosliklarini ta’rif-tavsif etadi. O‘z fikrlarini Xusrav Dehlaviy to‘g‘risidagi ma’lumotlar b-n to‘ldiradi. Dostonning 7-bobi murshidi mavlono Abdurahmon Jomiyga bag‘ishlanadi. Murshidining tengsiz kamoloti, asarlaridan bahs etadi. Jumladan:

Bahravar andin odam avlodi,
Olam ahlig‘a zilli irshodi,

Mayi hush ahli jonfizoyi ham,
Jomidin bahravar Navoiy ham.

Dostonning 9-bobi Sulton Husayn Boyqaro madhiga bag‘ishlangan. Dostonda Bilqisi zamon – Xadichabegimga ham alohida bob ajratilgan. Dostonning 12-bobi asar asosiy syujetining boshlanishidir. Chunki bu bobda shoh Bahrom haqida ma’lumot beriladi. Keyingi boblardan Bahrom va Diloromning ishq sarguzashti boshlanadi. Bahromning hayoti bevosita ov b-n bog‘liq. Ov qilib yurarkan, rassom Moniy b-n uchrashadi. Va Chin go‘zali Diloromning suratini Moniy Bahromga taqdim etadi. Oshiq shoh Chin mamlakatining bir yillik xiroji evaziga Diloromni saroyga keltiradi. Oshiq Bahrom shohlikni unutadi. Mamlakatdagi tartibsizliklar xalqning noroziligiga sabab bo‘ladi. Ammo ishq va ovga berilgan shoh bulardan bexabar edi. Kunlarning birida ov jarayonida Dilorom aytgandek, kiyikni otgan Bahrom yoridan maqtov kutadi. Ammo Dilorom shunday javob beradi:

Dedi: “Har kim bir ishni varzish etar,
Ish kamolini ko‘r, ne yerga yetar!”.

Demadi shohniki: “etting xo‘b”,
Ishni idmonga ayladi mansub.

Diloromning sevgilisi mahoratini “Mashq natijasi” o‘laroq baholashi asardagi keyingi voqealar rivojiga sabab bo‘ladi. Mastligida shoh qizning oyoq-qo‘lini o‘z sochlari b-n bog‘lab, biyobonga tashlab kelishga buyuradi. Ammo ertasi kuni hushyorligida o‘zi borib izlaydi, topa olmaydi. Bahromning oshiqligi kundan kun ortib boradi. Ayriliq, dard uning ishqini alangalatadi. Bahromning oshiqlik holati yorqin chizgilarda beriladi. Uning iztirobi butun saroy ahlini 400 tabibni topib, davolash tadbiriga olib keladi. Biroq 2 yillik muolaja ham shohning ishq dardiga malham bo‘lolmaydi. Shundan so‘ng 7 ta qasr qurdirishadi, Moniy ularni 7 rangga bo‘yab bezaydi. Bahromni 7 iqlim shohining 7 qiziga uylantirishadi. Yetti qasrlarning rangi yetti sayyora va yetti kun, asosiysi, Bahrom ruhiyati b-n uyg‘un edi. Shanba kuni u-n shu kunning homiysi Zuhal (Saturn) sayyorasining rangiga mos qora qasr, yakshanba u-n uning homiysi Quyosh sayyorasining rangiga mos sariq qasr, dushanba u-n dushanba homiysi Oy sayyorasining rangiga mos keluvchi yashil qasr, homiysi Mirrix (Mars) bo‘lgan seshanba kuni u-n Mirrix rangini ifodalovchi qizil qasr, chorshanba kuni u-n uning homiysi Utorud (Merkuriy) rangiga mos moviy qasr, payshanba u-n Mushtariy (Yupiter) rangiga mos keluvchi sandal qasr va, nihoyat, juma u-n uning homiysi Zuhra (Venera) rangiga mos oq qasr barpo qilingan edi. Asardagi 7 musofir tilidan aytilgan 7 hikoyat shoirning maqsadini ochib beradi. Asar so‘nggida shoir ham buni e’tirof etadi:

Lutf bu nazm aro bag‘oyatdur,
G‘araz ammo yeti hikoyatdur.

Chunki qoyil yeti musofir edi
Ki, alar sayr ishiga mohir edi.

Nafs tarbiyasi, nafsni poklash masalalari hikoyatlarning bosh mavzusidir. Bu hikoyatlarda nafs darajasi, rang, ifoda mushtaraklashgan. Asar N.ning komil inson haqidagi tasavvurlarinigina emas, ma’nan qayta tug‘ilishning usul-u arkonlarini ko‘rsatib beradi. Shanba kuni hindistonlik musofir shahzoda Farrux va olijanob Axiy haqidagi hikoyatni, yakshanba kuni rumlik musofir zargar Zayd Zahhob haqidagi

hikoyatni, dushanba kuni shahrisabzlik musofir Sa'd haqidagi hikoyatni, seshanba kuni Jo'na va Mas'ud haqidagi hikoyatni, chorshanba kuni beshinchi iqlim yo'lidan kelgan musofir Mehr va Suhayl haqidagi hikoyatni, payshanba kuni Muqbil va Mudbir haqidagi hikoyatni, juma kuni xorazmlik musofir sevgilisi Dilorom haqidagi hikoyatni so'zlab beradi. Hikoyatlardagi oliy tuyg'ular, insoniy fazilatlar Bahromning dard-u alamini kamaytirishga, kamolotiga sabab bo'ladi. Tasavvufdagi malomat, futuvvat, axiylik, jasorat va ma'rifat, himmat kabi mavzular ochib beriladi. Ranglar ham qoradan oqqa qarab boradi va Diloromning xabarini Bahrom oq libosda tinglaydi. Ma'shuqasi b-n topishgan Bahrom yana aysh-ishrat, ovga berilib ketadi. Qattiq yomg'ir yoqqan ov kunida eski botqoqning ko'zi ochilib, Bahromni sevgilisi va butun arkoni davlati b-n yer yutib ketadi. N.ning o'z-o'ziga qilgan murojaatlari asarning turli o'rnidan joy olgan. Bular asarda juda muhimdir. M-n, asarning Bahrom go'rni yer yutishi tasviri berilgan 35-bobi quyidagicha yakunlanadi:

Ey Navoiy, vujud harfin unut,
Adam o'lmoq bila fano yo'li tut.

Sen chu ursang fano yo'lida alam,
Yo'qqa mumkin emas yetishmak alam.

Alamin ko'rmayin desang yo'q bo'l,
Seni yo'q topsa o'zga netgay ul?

Inson vujud va ruhdan iborat. N.dagi fanovashlik bu asarida ham to'laqonli ochib berilgan. Asarning so'nggi boblarida, ayniqsa, shoirning ko'ngli ila musohibligi aniq ko'rinadi:

Ey Navoiy, safarg'a tayyor o'l,
Toki mumkindurur sabukbor o'l.

O'zlugungdek og'ir yuking yo'q bil,
Ul og'ir yukdin o'zni ayla yengil.

Har bir inson o'zini tanishni musofirligini anglashdan boshlashi lozim. N. ham safarga otlanarkan, o'zluk og'ir yuk ekanligini biladi. Va bu yukdan qutulishga chaqiradi. Bu kechinmalarini go'zal ifodalarda yetkaza oladi. N. ijodiyoti ko'lamini sarhisob qilish mushkul. Ammo ifoda, talqinda takror uchramaydi. "S.S." dostoni ham yangi-yangi badiiy topilmalarga boy. Dunyoni suv ustidagi kesakka mengzash ham shoirning mahoratini ko'rsatadi:

Bir ulug'roq kesak erur bu jahon
Ki, erur ko'pragi suv ichra nihon.

Kurayi xok keldi bebunyod.
Suv ichinda kesakka ne bunyod.

Shoirning "Oqibat baxtning hidoyatidin, Baxt yo'q, Tengrining inoyatidin", "Ishq ila shohlig' muvofiq emas, Ishq lofida shoh sodiq emas" singari hikmatga aylanib ketgan baytlari dostonda talaygina. Asar so'nggida ham Bahrom orqali Husayn Boyqaroga o'git keladi:

Ki jahon kimsaga vafo qilmas,
Shohlik tarkiga kiro qilmas.

Shahki ming yil aning hayotidur,
G'araz o'lganda yaxshi otidur.

Ming yil o'lsa hayot maddig'a,
Ul zamonkim, o'lar erur bari hech.

N. o'zi ta'kidlaganidek, besh ming bayt (o'n ming misra)n iborat dostoni "S.S." 889-(milodiy 1484) yil jumodissoniy oyining payshanba kuni tugaydi. "S.S." hafif bahrining hafifi musaddasi maxbuni mahzuf (ruknlari va takti'i: foilotun mafoilun failun) vaznida yozilgan. "S.S." dostoni xususida S.Hasanov, A.Rustamov, M.Muhiddinov, M.Narziqulova, O.Ibrohimov kabi olimlar ilmiy tadqiqot va izlanishlar olib borishgan. Asarning nasriy bayoni Inoyat Maxsum va Saidbek Hasanovlar tomonidan amalga oshirilgan.

***Ad.**: Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Сирожиддинов Ш., Юсупова Д., Давлатов О. Навоийшунослик. – Т., 2018; Алишер Навоий: Қомусий луғат. 1–2-жилдлар. – Т., 2016; Ҳасанов С. Навоийнинг етти туҳфаси. – Т., 1991.*

Z.R.

“SAB’AI SAYYOR”NING RUS TILIGA QILINGAN TARJIMASI – N.ning boshqa asarlari qatorida “S.S.” ham rus tiliga o‘girilgan va nashr etilgan. Tarjimon – Semyon Lipkin. Tarjima N. tug‘ilgan kunining 500 yilligi munosabati va H.Olimjon tashabbusi b-n amalga oshirilgan holda 1948-y.da alohida kitob sifatida bosilib chiqqan. 1948-y.da N.ning Moskvada nashr etilgan “X.”si (“Пять поэм”) tarkibida ham e’lon qilingan. Ushbu tarjima N.ning Toshkentda nashr etilgan rus tilidagi 10 jildlik asarlari to‘plamidan ham o‘rin olgan. Shuningdek, tarjimadan parchalar “Алишер Навои. Стихотворения и поэмы”. (M-Л,1965); “Алишер Навои. Избранное” (T.,1968); Алишер Навоий. Избранное (T., 1978) kitoblariga ham kirgan.

Dostonning hamd, munojot, na’t, me’roj, Jomiy madhi, Sulton Husayn madhi, Xadichabegim madhi kabi boblari tarjima qilinmagan. Asar oxiridan ham ayrim boblar tushirib qoldirilgan. S.Lipkin “S.S.” tarjimasi ustida uzoq va qunt b-n ishlagan, o‘zining butun bilimi va tajribasini ishga solgan. Tarjima tilining ravon va go‘zalligi, dostondagi tasvir, qahramonlar ruhiy holati va kechinmalarining rus tilida yuksak badiiyat b-n ifodalanishi ana shu mehnatning samarasidir. Doston bosh qahramonlaridan Diloromning husni N. tomonidan beqiyos mahorat bilan tasvirlangan va ana shu parcha tarjimasida ham Diloromning mislsiz husni va malohati bor bo‘yicha aks ettirilganini ko‘rish mumkin:

Её лицо – прелестнее светка,
А губы – два пунсовых листка.
Нектара полон каждый лепесток,
Живой водою стал медяной сок:

Мертвец, его отведав, оживёт!
И так укрыт между губами рот.

Tarjimada asliyat mazmuniga birmuncha erkin yondashuv ko‘zga tashlanadi. Baytlarning tashlab ketilishi yoki bir necha baytning mazmunini qisqacha ifodalash, bir bayt misrasining boshqa bayt misrasi bilan almashtirilishi holatlari uchraydi. M-n, 35-bob oxirida shunday parcha bor:

Alloh-Alloh! Ne ajdahodur bu,
Ajdaho demakim, balodur bu.

Kim kishi topsa ajdahodin ranj,
Ham topibdurlar ajdahodin ganj.

Munda yo‘q ganj g‘ayri vayronliq,
Kimsa andin qutulmayin jonliq.

Toki jondin erur nishon kishiga,
Andin ermas dame omon kishiga.

Jonin olg‘on bila dog‘i qo‘ymas,
Tanni yutqon bila dog‘i to‘ymas.

Jismi xokini xoksor aylar,
Ko‘kka ajzosini g‘ubor aylar.

Onchakim bo‘lg‘ay ul g‘ubor asari,
Yetar ajzosig‘a aning zarari.

Anga bir damdadur tutulmog‘liq,
Lek yillarda yo‘q qutulmog‘liq.

Tarjimasi quyidagicha:

Мы знаем, что чудовище – дракон,
Но бережет сокровище дракон.

А что мы видим в мире? Прах и тверд,
Сокровища здес нет, здес толко смерт.

Отраду жизни человек постиг,
Но может умерет он каждый миг.

Доволно мига, чтоб дракону в паст,
Не толко телу – и душе попаст.

Но нам не хватит многих долгих лет,
Чтоб избавление найти от бед.

Ko‘rib turganimizdek, asliyatdagi 8 bayt mazmuni tarjimada 6 baytda ifodalangan. Bunda 3 bayt (5, 6, 7) tushirib qoldirilgan, 1 bayt (8) mazmuni esa 2 baytda aks ettirilgan. Yana shuni ham qayd etish zarurki, tarjimada mazkur bob yuqoridagi parchaning oxirgi bayti b-n yakunlanadi, holbuki asliyatda undan keyin yana besh bayt bor va bob

Alamin ko‘rmayin desang yo‘q bo‘l,
Seni yo‘q topsa o‘zga netgay ul?

misralari bilan tugaydi. Bundan tashqari baytlar mazmuni uncha to‘g‘ri o‘girilmagan holatlar ham uchraydi. Ma’lumki, N. dostonni quyidagi mashhur baytlar bilan yakunlaydi:

Xalqqa zebi torak ayla oni!
O‘qug‘ong‘a muborak ayla oni!

Yetti aflokni anga yor et!
Yetti iqlim elin xaridor et!

Tarjimon bu ikki baytni uch baytga aylantirgan va shunday o‘girgan:

Иди, моё творение в народ,
Пуст он в тебе святыню обретет.

Да будут всем стихи мои нужны,
Да будут с ними сем небес дружны.

Да будет их друзями полон свет,
А покупателями – сем планет.

Oxirgi baytda N. “Yetti iqlim elin xaridor et!”, – deydi. Yetti iqlim – butun yer yuzi. Yetti iqlim eli – butun yer yuzidagi xalqlar. Tarjimada esa “а покупателями – сем планет”. Bundan “yetti sayyora xaridor bo‘lsin” degan ma’no chiqadi. Umuman olganda, yuqoridagi singari kamchiliklardan qat’i nazar, “S.S.”ning S.Lipkin tomonidan qilgan tarjimasi qator ijobiy jihatlari b-n ajralib turadi va u dostonning kelajakda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan to‘liq tarjimasi u-n asos bo‘lib xizmat qila oladi.

***Ad.**: Алишер Навои. Сочинения в 10 томах. – Т. 6. – Т., 1968; Алишер Навои. Пять поэм. – М.,1948; Алишар Навои. Избранное. – Т., 1968.*

Q.E.

SABZAVORIY DARVESH MANSUR – N. “M.N.”da tilga olgan. S.D.M. tasavvuf ilmida Hofiz Alining shogirdi, darvesh tabiatli, o‘ta parhezkor, aruz ilmiga oid risolalar muallifi, qasidago‘y shoir edi. Xoja Salmonga javoban bir necha qasida aytgan. S.D.M. Aruz va sano’yi ilmida N.ning ustozi hisoblanadi.

N. S.D.M.ning shogirdi ekanini “M.N.”da quydagicha zikr etadi:

“Bu faqir aruz fanida vosita bila Mavlononing (S.D.M.) shogirdimen...”.

***Ad.:** Алишер Навоий “Мажолис ун-нафоис”. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Сиғарий Бону Шикаста. Амир Алишер. – Исломобод, 2005.*

Muh.A.

SABO – mashhur timsol, N. lirikasida ham ko‘p qo‘llangan. Sharq tomondan esadigan tonggi yoqimli va salqin shamol. Tasavvufda u Alloh taoloning rahmoniy nafasiga nisbat berilib, xayrga bois bo‘lishi aytiladi. S. oshiqning oh-u nolasini Allohga, o‘z navbatida, Allohning xabarini oshiqqa yetkazadi. Xususan, S. b-n oshiqlarning tong chog‘ida chekkan ohlari o‘rtasida bog‘liqlik

mavjud: tasavvuf ahli tong chog‘ida urilgan oh Alloh taologa yetib boradi, deb hisoblaydilar. Bu haqda Shayx Abu Bakr Qattoniy shunday deydi: “Alloh taoloning bir yeli bor – tong chog‘ida esgay. U el oshiqlarning oh-u nolishini eshitgay, Arshga olib chiqqay, undan Hazrati Parvardigorga yetkazgay”.

Ko‘ngil holining o‘zgarishi, bir holatdan ikkinchi holatga o‘tishi ham S. deyiladi.

Farhod o‘limidan oldin S. orqali ota-onasi, Mulkoro va Bahromga, vataniga, o‘zi u-n qurdirilgan 4 qasrga musavvirlik va toshtaroshlikdagi ustozlari Moniy va Qoranga, do‘sti Shopurga va jami ishq ahliga salom yo‘llaydi:

Ki, ey bodi sabo, Tengri uchun qo‘p,
Etib Chin-u Xito mulkig‘a yer o‘p!

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – T., 2011; Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005; Очилов Э. Бир ҳовуч дур. – T., 2011.*

E.O., M.A.

“SABR ARCHI KISHIGA RANJ AFZUN AYLAR – “N.J.” asaridan o‘rin olgan ruboiy:

Sabr archi kishiga ranj afzun aylar,
Oxir kishi folini humoyun aylar.
Sabring nechakim ko‘ngulni mahzun aylar,
Ham sabr seni zafarga maqrun aylar.

To‘rtlikda sabr va uning xususiyati haqida bahs yuritilgan. Sabr – chidam, bardosh, toqat aylash demak. Tasavvufiy tushunchada, sabr – insonning yaxshi va yomon barcha hollar Allohdan ekanligini anglashi va unga rozi bo‘lishi. Yaxshi hollar u-n shukr, yomon hollar u-n shikoyat qilmaslik sabrning shartlaridandir.

Ma’lumotlarga ko‘ra, Allohu taolo Qur’oni Karimning to‘qsondan ortiq yerida sabrni zikr etgan, bir qancha axloqiy fazilat va xususiyatlarni sabrga bog‘lagan, ma’naviy rutbalar va ezguliklarni sabrning samarasi aylagan. Darhaqiqat, Qur’oni Karimdagi sabrga doir har bir oyat shularni to‘la tasdiqlaydi. Eng muhimi esa “Sod” surasidagi “Albatta Alloh sobirlar bilan birgadir”, – degan ilohiy e’tirofdir.

Mana shuning u-n ham Sharq mumtoz adabiyotida, xususan, tasavvuf she’riyatida sabrga alohida ahamiyat berilgan. Zero, “sabr shunday bir kuchli narsadurki, shahvatni iffatga, g‘azabni shijoatga, shiddatni hilmga, manmanlikni tavoze’ga, yomonlikni yaxshilikka aylantirmakka quvvati yetar” (Abdulla Avloniy).

Sabrning bunday o‘zgartiruvchilik va yangilovchilik qudrati yoxud imkoniyatlari komil insonlar tomonidan teran idrok etilgan. Sabr to‘g‘risida gapirish boshqa, tom ma’nosi b-n sobir bo‘lish – bu boshqa. Sabr u-n, eng avvalo, aql va ma’rifat zarur. Aql va ma’rifatga asoslanmagan sabr shunchaki chidash, irodani sinash va fikrsizlik ko‘nikmasidan o‘zga bir narsa emas. Shayx Abu Abdulloh Hafifning tasnifiga ko‘ra, sabr qiluvchilar uch xildir: 1. Mutasabbir, ya’ni zo‘rma–zo‘rakilik bilan sabr etuvchi, sabrda besabrlikka yon beruvchi. 2. Sobir – sabrli, sabrga sodiq kishi. 3. Sabbor – ko‘p sabrli. N. ham boshqa bir to‘rtligida sabur, ya’ni sabbor va sobirni ulug‘lab, har kimki:

Chun bo‘ldi sabur tengri dodiga yetar,
Sobir kishi oqibat murodiga yetar, –

deydi. Hech shubhasizki, sobirlikda ham, saburlikda ham o‘ziga xos ranj, mashaqqat va qiyinchiliklar bor. Ko‘ngilni mahzunlik, ojizlik rutubatlaridan poklab, zafarga erishmoq u-n sobirlar uch narsani amalga oshirganlar. Bular: nafs va xudparastlikni yengish; Qazoga rizo; Va yaxshidir yomondir, og‘irdir, yengildir Alloh ravo ko‘rgan hamma narsani ishq b-n qabul aylash. N. “Sabr archi kishiga ranj afzun aylar”, deganida, asosan, nafsdan yuzaga keladigan yoki nafsi ammoraga tegishli ranj va aziyatlarni e’tiborda tutgan.

“Sabrning ikki turi borligini bilmoq lozim, – deydi Abulkarim Qushayriy – ulardan biri – obidlarning sabri, ikkinchisi – oshiqlarning sabri.

Obidlar sabrining eng go‘zal ko‘rinishi – sabrning shikoyatdan butunlay forig‘ bo‘lishi. Oshiqlarning eng go‘zal sabri – iztirobdan xoliligi”. N. ham shikoyatdan, ham iztirobdan forig‘ sabrni yoqlagan. Chunki faqat shunday holga yetishgan kishidan Tangri madad va marhamatini darig‘ tutmaydi. Faqat shunday kishigina maqsadga erishib, o‘zgalarga namuna bo‘la oladi.

Chunki aynan boy-badavlatlik holatida nafs insonni tez va ko‘p yo‘ldan ozdirib, o‘ziga taslim etadi. Najmiddin Kubro hazratlari sabrni “nafsning istaklaridan bamisoli bir o‘lik yanglig‘ uzoq turmoq”, – deya ta’riflab yana bunday deydilar: “sabr…nafsga qarshi borib, uning talab va istaklarini bajarmaslik, istamaydiganlarini esa bajarishdir. M-n, nafs vahdatni istamas, aksincha, kasrat va turlanishni talab aylar. Shuning u-n ahli havo-yu havas vakillari bir qiyofada yura olmaslar”.

N. she’rda sabrning foyda va ahamiyati haqida so‘zlamasdan, uning ranj va ko‘ngilga mahzunlik yetkazishiga nega e’tiborni qaratgan? Chunki tasavvufda sabrning tamali nafsga qarshi borish. Nafsga qarshi turmoq u-n esa nafsni tanish lozim. Nafsi shum o‘zini tanishdan cho‘chimaydi. Zero, uning insonni avrash, yo‘ldan ozdirish, mahzunlikka chulg‘ash imkonlari haddan ortiq keng. Uni hatto ilm b-n taslim aylash juda qiyin kechadi. Shuning u-n Atoulloh Iskandariy “Nafsdan norozi bo‘lgan bir johil bilan do‘stlashuving nafsidan rozi bo‘lmish bir olim bilan do‘st bo‘lishdan ko‘p karra xayrlidir”, – deydi. Xullas, N. axloqiy tushuncha va bezavol fazilat o‘laroq sabrning nazariy ahamiyatidan emas, amaliy natijasidan bahs yuritgan. Shoir tasvirida sabr aql va axloq hunarigina emas, nafs tasfiyasining hosilasi bo‘lmish bir ko‘ngil holidir. Demak, sabr zafari alaloqibatda ko‘ngul zafari hisoblanadi.

N.ning “N.M.” kitobida shunday bir rivoyat bor: naql etilishicha, Sirri Saqatiy bir kun muridlariga sabr haqida so‘zlar ekan, bir chayon kelib, unga nish sancha boshlabdi. Aytdilarkim: “Nechun uni o‘ldirmaysiz?” Aytdikim: “Uyaldim, chun sabr xususida so‘zlayotgan edim”. Qissadan hissa shulkim, sabrda so‘z va amal, hol va iroda zarracha bo‘lsin bir-biridan ajralmasligi va yiroqlashmasligi zarurdir. Ana shunda sobirlar payg‘ambarlarga vorislik maqomiga etishurlar. Ana shunda:

Har kimki falak zulm-u inodiga yetar,
Sabr aylagan oxir e’tiqodiga yetar.

Ad.: *Алишер Навоий. Назм ул-жавоҳир. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Ҳаққул И. Тасаввуф сабоқлари. – Бухоро, 2000.*

I.H.

“SAB’ATI ABHUR” (“Yetti dengiz”) – N.ga nisbat berilgan arab tilining izohli lug‘ati. Turk olimi Ogah Sirri Levend 1956-y.da Turkiyaning Ayo-So‘fiya, Sulaymoniya va Nuri Usmoniya kutubxonalarida “S.A.” nomli fanga noma’lum 6 ta qo‘lyozma topadi. U Ayo-So‘fiya nusxasining muqaddima va xotimasidagi ma’lumotlarga asoslanib, ushbu lug‘at N. tomonidan tuzilgan degan fikrga keladi va bu haqda “Alisher Navoiyning arabcha lug‘ati” nomli maqolasini yozadi. Ba’zi olimlar bu fikrni rad etsalar-da, ko‘pchilik tadqiqotchilar uni qo‘llab-quvvatlaydilar. “S.A.”ni tadqiq etib, nomzodlik dissertatsiyasi yaratgan B.Hasanovning fikricha, N. arab tilini yaxshi bilgan va bu tilning leksikografiyasiga oid turli manbalardan boy material yiqqan hamda ushbu materiallarni tartibga solib, bir lug‘at tuzmoqchi bo‘lgan, hatto ishga kirishgan ham. U lug‘atga “S.A.” deb nom qo‘yib, uning muqaddimasini yozishga ulgurgan (Bu muqaddima Ayo-So‘fiya nusxasida ham bor). Muqaddima musavvada (qoralama) holida qolib ketgan. Lekin lug‘at haqida N.ning o‘zi ham, zamondoshlari ham biror ma’lumot yozib qoldirmaganlar. Oradan 236 yil o‘tgach, 1736-y.da shoir va olim Ahmad Ali ibn Damashqiy al-Maniniy (1678–1759) bu ishni nihoyasiga yetkazadi. U N. muqaddimasini saqlab qolgan. Bu haqda u

“S.A.”ga o‘zi yozgan muqaddima va xotimada ma’lumot beradi.

“S.A.”da 8607 ta lug‘at maqola berilgan. Lug‘atda tilshunoslik, adabiyot, tibbiyot fanlariga, shuningdek, o‘simlik, hayvonot va hasharot nomlariga oid so‘zlar izohlangan. Fikrlar tasdig‘i u-n Qur’oni Karim, Hadisi sharif va turli shoirlarning she’rlaridan parchalar keltirilgan. Lug‘at shoir asarlaridagi arabcha so‘z va iboralarni tushunishga yordam beradi. Umuman, arab tilini bilish va tushunish u-n ham muhim ahamiyatga ega.

Ad.: *Ҳасанов Б. “Сабъат абҳур” Алишера Навои. АКД. – Т., 1974; Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т., 1976; Абдуқодиров А. Амир Алишер Навоий. – Хўжанд, 2013.*

E.O.

SAVDO I – arabiy lafz bo‘lib, qora o‘t, melanxoliya (qadimgi tibbiyot ilmiga ko‘ra, kishi tani tarkibi to‘rt suyuqlik – xilt: savdo, safro, qon, balg‘amdan iborat. Bu xiltlardan birortasi ortib ketishi natijasida, go‘yo kishida ruhiy o‘zgarish, g‘am-kadar paydo bo‘ladi) deganidir. Ma’lumki, inson vujud va ruhdan iborat. Bu imtihon dunyosida ular ayri tasavvur etilmay, mushtarak hodisa o‘laroq qaralgan. Zero, vujuddagi sog‘lomlik ruhiyatga, ruhdagi komillik vujudga o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Ilohiy kitoblardan oziqlangan har qanday ta’limotda jism va qalb salomatligiga birday diqqat qilingan. Adabiyot ham lirik qahramonning hol tasvirlarida bunga e’tibor qaratgan, natijada, S. so‘zi ham jismoniy, ham ruhoniy hollarni ifodalovchi istilohga aylangan:

Seyl un chekti-yu savdo menda bepoyon hanuz,
Dasht sarsabz o‘ldi-yu men telba sargardon hanuz.

Demak, to‘rt unsurdan iborat vujudda hamisha mutanosiblik saqlanishi lozim. Bo‘lmasa, inson ruhiyati ham o‘zgaradi, S.si ortib ketganda, xalq tili b-n aytganda “savdoyi” bo‘lib qoladi. N. buni quyidagicha ifoda etadi:

Damim dudi xirad ahlin qilur har lahza savdoyi,
Dimog‘imda, ko‘rung, ul zulf mushkidin
ne savdodur?!

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011.*

Z.R.

SAVDO II – mumtoz adabiyotda oshiq qalblarda kechadigan bir hol. Shu ma’noda S., ayniqsa, mumtoz tasavvufiy adabiyotda quyidagi ma’nolarda keladi:

1. Kuchli ehtiros, ishq, shaydoyilik. Darhaqiqat, qalbida ishq urug‘i tushgan oshiqda kuchli ehtiros va shaydoyilik boshlanadi. Bu zavq-shavq manbayi, avvalo, ilohiy go‘zallikdir:

Zihi husnung zuhuridin tushub har kimga bir savdo,
Bu savdolar bila kavnayn bozorida yuz g‘avg‘o.

Bu dunyo mutlaq borliqning zuhurotidir. Aslida har bir yaratiqda Allohning .... sifati namoyon bo‘ladi. Qalblarda S.ni paydo qiluvchi mana shu ilohiy ishqdir. Ishq insonni o‘zligidan qutqarib, ya’ni, yangi bir men paydo qiladi. Shu bois ishq S.si birikmasi keng qo‘llaniladi. Unda zohiriy bir tartib ko‘rinmaydi. Undagi mahrumiyat ham axloqni go‘zallashtirishga xizmat qiladi. N. ham inson nafsi u-n eng foydali S. ishq S.si ekanligini ta’kidlaydi:

Ishq savdosida jonimg‘a ziyondur, demakim,
Har kishi mundoq ziyon ishq ichra qilsa, sudidur.

Shoir kechinmalari bayonida ishq S.sidagi hollar o‘ta baland. N. boshqalardan ko‘ra o‘z maqomining balandligini ishq S.si b-n bog‘laydi:

Telba deb qilma Navoiyning ilojin, ey hakim,
Kim mushavvashdur anga bir o‘zga
savdodin dimog‘.

Yoki yana bir g‘azalida quyidagicha faxriyasi bor:

To jilva qildi ul sanam, Layli so‘zi bo‘ldi adam,
Savdom o‘ti chekkach alam, past etti
Majnun shuhratin.

2. Xayol; telbalik, jinnilik. Mumtoz adabiyotda insonning xayolot olami va Haq yo‘lovchisining ruhoniy sayri asosiy tasvirlardandir. Shu ma’nodagi S.yilik – junun holiga tengdir. Shuning u-n ahli junun, ahli S. – ishqqa mubtalo bo‘lgan, nafsini mahv etib, o‘zligini unutgan oshiqlarga nisbatan qo‘llaniladi. Ularning jununi, aqldan ozishi S.ning ortib ketishi b-n bog‘liq. Bu S.yilik aslida ruh pokligiga, qalbi salimga ishoradir:

Zulfi savdosi bu boshinda ko‘p turur,
Bo‘lsa savdo ahli, tong yo‘q, ahli
savdo birla do‘st.

S.yilar o‘z hollaridan maqtanmaganidek, shu maqomlaridan or ham qilishmagan. Badiiy adabiyotda ham ularning holiga sultonlar havas qiladigan baland bir rutba sifatida baho berilgan. N.da ham bu kabi e’tiroflar mavjud:

Ishq ila bo‘ldum masal savdo bila afsona ham,
Shukrilillohkim, yana oshiqmen-u devona ham.

Albatta, N.day ulug‘ shoirlar S.si she’riyat b-n bog‘liqligi shubhasiz. Buni shoirning “G‘.S” devoni debochasidagi: “Ammo ba’d so‘z bayt ul-haramining bodiyapaymoyi va nazm shohbaytining zevaroroyi al faqir-ul-haqir Alisher al-mutaxallis bin-Navoiy satara uyubahu va g‘afara zunubahu andoq arz qilurkim, bu xoksori parishonro‘zgor kichik yoshdin o‘zumni she’rning parishon savdosig‘a giriftor bo‘lg‘animni-yu tufuliyat zamonidin ko‘nglumni[ng] nazmning parokanda vasvosig‘a mash’uf-u sheftavor bo‘lg‘anin va motaqaddam shuarosi malik ul-kalomlari dasturi bila jam-u tartibida sa’y qilg‘animni-yu necha martaba aning tadvinida murattablar irtikob qilib har sinf she’rg‘a zeb-u tazyin va oroyish-u oyin berganimning kayfiyatin burung‘i devonim fihrastidakim, “Badoyi’ ul-bidoya”g‘a mavsumdur, sharh bila arz qilib erdim”, – iqrorida ham ko‘rish mumkin. S. lafzi b-n bog‘liq “savdoyi”, “savdozoda” (xayoli buzilgan, telba, tentak), “savdoiyona” (savdoyilarcha, devonalarcha), “savdopesha” (savdogar) kabi istilohlar, “ahli savdo”, “daf’i savdo”, “ishq savdosi”, “aql savdosi” kabi birikmalar paydo bo‘lgan.

Daf’i savdo istadim la’li mayidin, bir yo‘li
Ul pari savdozada ko‘nglumni majnun qildilo.

Oshiqning jununini ko‘rsatuvchi Savdozada istilohi, ayniqsa, “D.F.”da ko‘p uchraydi:

Xalq donist, ki on rashki pare yori man ast,
Dili savdozada nogufta, ki devonayi kist?

“M.N.” tazkirasida shoir Bobo Savdoyi haqida shunday ma’lumot beriladi. Ta’kidlash joizki, mumtoz adabiyotda bahs etilayotgan S. bir ruhiy xastalik, ammo u g‘aybdan keladigan ilhom, jazba oqibatida yuzaga chiqadi. Bunday S. ortishining o‘z muolajalari bo‘lib, ularning tabibi, asosan, komil murshidlar, Robbul olamin Alloh taoloning o‘zidir. 3. Istak, havas, orzu.

Xullas, N. asarlarida S. istilohi uch xil ma’no mazmunda keladi. S. insonning vujud va ruhoniyatidagi mushtarak bir holatdir. Irfoniy adabiyotda u oshiqlik holi va maqomidir.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Девони Фоний. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011.*

Z.R.

SAVDO III – forsiy kalima bo‘lib, oldi-sotdi ma’nosini bildiradi. N. asarlarida bu lafz moddiy ashyo va ma’naviy hol savdosi ma’nosida qo‘llaniladi. “M.Q.”da “Bozor kosiblari zikrida”

mol-mulk oldi-sotdisi haqida shunday fikr bildiradi: “Bozorda savdogar kosib-Tengrig‘a xoin va va’dag‘a kozib. Birga arzirin yuzga sotmoqdin alarg‘a ming mubohot, mingga tegarni yuzga olmoqdin alarg‘a yo‘q bir zarra uyot. Rostliq bila savdo alarg‘a ziyonkorlik va va’dag‘a vafo alarg‘a badkirdorliq. Oxirat ilmi savdosidin e’rozlari va amal mezoni adolatig‘a e’tirozlari. O‘g‘ul atog‘a boziy bermak peshalari, dag‘alliklarin kirom ul kotibayndin yoshurmoq andeshalari”. Adabiyotda tasvirlanishicha, eng yuqori S. husn, go‘zallik S.si ekanligi aniq:

O‘zungni sotmog‘ingda husn savdosidin, ey Yusuf,
Habibim yetsa erdi, ne ushalg‘oy erdi bozoring.

Husn S.si bozorida Yusuf (a.s.)ga beriladigan baho tengsiz ekanligi ma’lum. Ammo N. husn bozorida Yusuf (a.s) S.sini sindiruvchi Rasulullоh (s.a.v) ekanliklarini aytishi b-n go‘zallik haqidagi tasavvurlarimiz yanada tiniqlashadi. N.da har bir tasavvufiy istiloh o‘zining yangi va baland mohiyatini ochadi. Bu ta’kidni S.ga nisbatan ham bemalol qo‘llash mumkin. “Biad-dunyo biloxirati tarbahu” hadisini N. shunday sharhlaydi:

Dunyo bila necha zeb-u oro qilmoq,
Ul zeb ila do‘zax o‘ti barpo qilmoq,

Mumkin emas ersa tarki dunyo qilmoq,
Uqbo bila xushdur ani savdo qilmoq.

Xulosa qilib aytish mumkinki, N. asarlaridagi eng go‘zal, bebaho S., ya’ni oldi-berdi, tarki dunyo qilish, unga imkon bo‘lmasa, bu foniy dunyoni, u abadiy dunyoga, ya’ni uqboga sotishdir.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик. 9-жилд. – Т., 2011.*

Z.R.

SAVOD (ar.) – 1. Qora, qoralik. 2. Qorong‘ilik, zulmat. 3. Uzoqdan namoyon bo‘ladigan narsaning qorasi. 4. Shahar va tumanlar atrofi. 5. Shahar, mulk, mamlakat, diyor. 6. Zehn, malaka. 7. Yozuvning birlamchi nusxasi, qoralama. 8. Ko‘plik, ziyodalik, ortiqchalik. 9. Nusxa, qo‘lyozma. 10. Hoshiyaga va varaq atrofiga yoziladigan narsa. O‘qish va yozishni bilish, atrof-tevarak, yer yuzi, o‘lka.

N. asarlarida bu so‘z bir necha ma’nolarda kelibgina qolmay, S.i adam, S.i a’zam, S.i Eram kabi u yordamida ko‘plab iboralar ham hosil qilinadi.

Umuman, bilim, tushuncha, tajriba, xat-savod.

Uchunchi oy ravon bo‘ldi savodi
Burung‘iyda Qur’on bo‘ldi yodi

Ey soching shaydo ko‘ngullarning
savodi a’zami,
Halqa-halqa ruhning sarmanzilidir har xami.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011.*

M.A., E.O., Z.R.

SAVOL-U JAVOB (ar. – savol va javob) – she’rda ikki shaxsning o‘zaro savol-javobiga asoslangan ma’naviy san’at. S.J. goh misra, goh bayt, goh baytlar aro sodir bo‘lishi mumkin. U she’rga jonlilik, hayotiylik baxsh etadi. “Mumtoz she’riyatda tovush har xilligi ham xush jaranglilik usullaridan hisoblanadi, – deb yozadi bu haqda V.Rahmonov – she’rda ikki kishining savol va javobi berilsa, odatdagi tovush bir maromligi o‘zgaradi; tabiiy to‘xtamlar paydo bo‘ladi. Qolaversa, mumtoz adabiyotda dramatik janrning yo‘qligi ana shunday ikki kishi suhbatining matnda berilishini san’at deb hisoblanishiga balki asos bo‘lgandir”.

N. g‘azallari va dostonlarida ham S.J. san’atidan mahorat b-n foydalangan. M-n:

Dedim ko‘nglumga: “Har yondin
xadanging ne erur yora?
“Muhabbat o‘tig‘a, – dedi, –
o‘tindurkim, qolaydurman.

Dedingki: "Asra ko'ngulni o'zungdavu sabr et",
"Chu menda turmasu borur sanga ko'ngul,
netayin?"

S.J. ikki raqibning keskin bahs-munozarasini ifodalash u-n ham qo'llaniladi. "F.Sh." dostonidagi Xisrav va Farhod munozarasi buning yorqin misolidir:

Dedi: Bu ishqdin inkor qilg'il!
Dedi: Bu so'zdin istig'for qilg'il!..

Dedikim: Shahg'a bo'lma shirkatandesh?
Dedi: Ishq ichra tengdur shoh-u darvesh!

Dedi: Joningg'a bu ishdin alam bor!
Dedi: Ishq ichra jondin kimga g'am bor!

S.J., xususan, munozara janrida keng qo'llaniladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Т., 2001; Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2010.*

E.O.

"SAVONEH" ("Voqealar") (to'liq nomi: "As-savoneh fi maoniy ul-ishq" ("Ishq ma'nolari va voqealari") – Abulfutuh Majduddin Ahmad ibn Muhammad Ahmad G'azzoliyning (v. 1124/28) fors tilida yozilgan ishq holatlari bayoni haqidagi risolasi. Nasr va nazm omuxta go'zal, ta'sirchan til va uslubda yaratilgan. U tasavvuf ahli orasida nihoyatda mashhur bo'lib, unga ko'plab sharhlar yozilgan. Faxriddin Iroqiy "Lama'ot" ("Shu'lalar") asarini uning ta'sirida yaratgan. N.ning "N.M." tazkirasida yozilishicha, "S." fazilatlaridan biri shuki, "ma'shuqa barcha holi bilan ma'shuqdur, bas istig'no aning sifatidur va oshiq barcha holi bilan oshiqdur, bas iftiqor (muhtojlik) aning sifatidur. Oshiqqa hamisha ma'shuq keraklik, bas iftiqor aning sifatidur va ma'shuqqa hech nima darboist (kerak) emas, chunki o'zi o'ziningdur, lojaram (shubhasiz) istig'no aning sifati bo'lg'ay". "Xam.M."da bu asar Jomiy tilidan zikr etiladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Хамсат ул-мутаҳаййирин. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Ғаниева С. Навоий ёдга олган асарлар. – Т., 2004.*

E.O.

SADR (ko'pligi sudur) – musulmon hukmdorlar saroyida diniy ishlar b-n shug'ullanuvchi mansabdor. Bu mansab temuriylar davrida ham bo'lgan. Diniy muassasalar va muqaddas joylar (madrasalar, xonaqohlar, mozorlar) va ularga qarashli vaqf mulklarining boshqarilishi, ulamolar, mudarrislar va qozilar faoliyati ustidan nazorat qilish singari ishlar S.ning vakolati doirasiga kirgan. Shuningdek, yuqorida tilga olingan muassasalarni obodonlashtirish, binolarni ta'mirlash, mudarrislar, talabalar hamda xodimlarning ta'minoti (oylik maoshlari) kabi masalalar b-n ham S.lar shug'ullangan.

N. davrida Sulton Husayn Boyqaro saroyida turli yillarda Mir Sarbarahna, Xoja Abdulloh S., Kamoliddin Husayn Guzurgohiy S.lik mansabida xizmat qilganlar. Ularning uchovi ham N.ga yaqin kishilar bo'lgan.

N. S.lar faoliyatiga ahamiyat bergan. Uning asarlarida ularga doir qaydlarning uchrashi shundan dalolat beradi. "Masnaviy" (Sayid Xasan Ardasherga maktub) asarida u Sulton Abusaid zamonida S. vaqf mulkini o'zlashtirgani haqida shunday bayt bor:

Ham avqofni sadr amlok etib,
Vale ko'pragin may uchun tok etib.

"M.Q."ning oltinchi fasli "Noqobil sadrlar zikrida" deb ataladi. Unda N. o'z shaxsiy xususiyatlariga ko'ra ushbu mansabga nomunosib bo'lgan S.lar haqida so'z yuritadi va ularning

kirdikorlarini fosh qiladi. N. bunday S.larning o‘z vazifalarini suiste’mol qilib, navkarlar va chuhralarini xonaqoq va madrasalar hisobiga boqishi haqida shunday yozadi: “Navkarlarig‘a osh xonaqoh rotibasidin, chuhralarig‘a maosh shayx va mudarris vazifasidin”. Ayni paytda u S.ning qanday bo‘lishi xaqidagi o‘z fikrlarini ham bayon etadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Хондамир. Ҳабиб ус-сияр. – Т., 2011; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985.*

Q.E.

SADR OTA – N. “N.M.”da tilga olgan turkiy shayxlardan biri. U tazkirada o‘n nafardan ortiq ota nisbasidagi shayxlar kabi unga alohida fiqra bag‘ishlagan. Mazkur fiqra gap xarakteridagi xabardan iborat. N. unda S.O.ning tug‘ilgan joyi Turkiston ekanligi va shayx o‘z zamonida murshid sifatida ko‘plab muridlari borligi xususida xabar bitgan. Chunonchi: “Mavlidi Turkiston viloyatidindur, o‘z zamonida murshid ekandur”.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

B.R.

“SADDI ISKANDARIY” – Buyuk beshlik – “X.”ning beshinchi, yakunlovchi dostoni. 1485, hijriy 890-y.da yozib tugallangan, 7215 baytdan tashkil topgan bu doston faqat N. merosidagina emas, balki butun o‘tmish yozma adabiyotimizdagi eng yirik she’riy asar hisoblanadi. Xamsachilik an’analariga to‘la muvofiq holda N. ham qahramonlik dostonlari u-n umumiy an’anaviy bo‘lgan mutaqoribi musammani maqsur (“faulun, faulun, faulun, faul”) vaznida yozilgan o‘z dostoni asosiga Iskandar va uning zafarli yurishlari mavzusini qo‘yadi. Ammo ta’kidlash lozimki, xuddi Firdavsiy, Nizomiy, Xusrav Dehlaviy va Jomiy meroslarida bo‘lganidek, N. asarida ham tarixiy shaxs – Aleksandr Makedonskiyning (mil. av. 353–323) real shaxsiyati qiyofasini chizish, haqiqiy biografiyasini tiklash hamda ijtimoiy-siyosiy faoliyatini tarixan haqqoniy badiiy ifodalash maqsad qilib olingan emas. Iskandar nomi b-n bog‘liq ayrim tarixiy va asos holatda esa, to‘qima voqea va hodisalarni, ko‘plab rivoyat va afsonalarni, hatto fantastik tushuncha va mifologiya elementlarni o‘zida jamlovchi bu mavzu aslida N.ning o‘z ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-didaktik qarashlarini, zamonasi, o‘sha jamiyat va joriy axloqiy-huquqiy normalar yuzasidan fikr-xulosalarini ifodalash vositasi bo‘lgan. Shoir uzoq o‘tmishning haqiqiy va to‘qima voqea-hodisalari va afsona-naqllari vositasida o‘z davridagi hukmdor va valiahd shahzodalarga davlat va jamiyatni boshqarish, el-u yurtni tutish, fuqaro va sipoh ahliga munosabat, urush va tinchlik, mamlakatlar o‘rtasida totuvlik va markazlashgan davlat kabi muhim masalalar bo‘yicha o‘z aniq qarash va tavsiyanomalari, pand-o‘gitlari, orzu-umidlarini olg‘a suradi, har bir davlat boshlig‘i adolat va aql-idrokni o‘ziga do‘st tutib, ilm ahli b-n hamkor faoliyat ko‘rsatish zarurligi g‘oyasini targ‘ib qiladi. Xuddi shuning u-n ham dostonning Husayn Boyqaroning katta o‘g‘li mirzo Badiuzzamonga bag‘ishlanishi ham aslo oddiy tasodif emas. Insonparvar shoirning o‘z oldiga qo‘ygan ana shu g‘oyaviy maqsadiga ko‘ra, dostonda Iskandarni shahzoda-valiahd, davlat arbobi, odil hukmron sifatidagi faoliyatini N. iborasi b-n aytganda “ishini” ko‘rsatish hamda donishmand, ilm-u fan va aql-idrok qudratini tan oluvchi ma’rifatli shaxs sifatidagi xarakteristikasini (“so‘zi”, “maholoti”) yechish birinchi o‘rinda turadi.

... Yo‘nub xoma qog‘az nigorish qilay,
Hamul dostonni guzorish qilay.

Iskandar jahondori kishvarsiton,
Shundin chu nazm o‘lsa bir doston.

So‘zidin dog‘i yaxshi taqriyb ila
Hamul doston zaylida zeb ila
Surat hikmatoso maqolotini,
So‘z ichra ajoyib xayolotini.

An’anaviy tavhid, munojot, na’tlar b-n boshlangan dostonda N. “Xamsa” takmilida” deb atalgan maxsus bob ochadi va avvalgi to‘rt dostonni muvaffaqiyat b-n tugata olganligini mamnuniyat ila qayd etadi, endigi ijodiy rejasi haqida so‘z yuritadi, uning nihoyatda mas’uliyatli ekanligini ta’kidlaydi. Xuddi shu o‘rinda N. yozilajak beshligi dostonning qahramonlik xarakterini, jangovarlik yo‘nalishini belgilaydi, bayon etilajak harbiy yurishlar, jang-u jadallarga ochiq ishora etadi, o‘zini she’riyatning o‘q o‘tmas zirh sovut temir kiyimlarini, boshiga esa nazm tojini kiyib, ma’nilar sipohi ustidan qo‘mondonlik qiluvchi, so‘z cherikini boshqaruvchi lashkarboshiga qiyoslaydi. Shu muhimki, shoir “nazm ila bahr-u barni” egallashini “bilik taxti uzra chiqib” amalga oshirajagini ham ta’kidlaydiki, bu – dostondagi ikkinchi yetakchi yo‘nalish bo‘lmish ilm-hikmat, aql-idrok madhiyasini ham chertib ko‘rsatadi:

... Bilik taxti uzra chiqib o‘lturay,
Xayol elchisin har taraf chopturay.

Namudori rasmi rayosat qilib,
Ibo aylaganga siyosat qilib,

Maoniy sipohini jon mulkidin
Ne jon mulkidin – lomakon mulkidin.

Yasoq birla yetkurtayin favj-favj
Ki, tutsun cherik ne hazizu ne avj.

Yig‘ilg‘och sipah tarki bazm aylayin,
Jahongirlik sari azm aylayin.

Solib tang‘a so‘z javshan-u bagtarin
Quyub bosh uza pok nazm afsarin.

Minay ko‘shish-u sa’y raxshig‘a tez,.
Sipah ziynatig‘a qiloyin sitez.
... Nechukkim, Skandar kezib xushku tar,
Musaxxar qilay nazm ila bahr-u bar.

Dostonning bevosita syujeti bayoniga qadar avvalgi to‘rt dostonda bo‘lganidek, xamsanavis ijodkorlar Nizomiy, Xusrav Dehlaviy va Jomiylar, shuningdek, Husayn Boyqaro va valiahd Badiuzzamon madhiyalari hamda “so‘z ta’rifi” beriladi, maxsus bir bobda esa, faxriya uslubida she’riyatning mayda janrlari muallifni qoniqtirmagani, “X.” kabi ulkan asarni o‘z ona tilida yozish rejasi yoshlik yillaridayoq qat’iy shakllangani, hatto bu haqda rasmiy og‘iz ochganligi, yozishga kirishib, tezda yakunlay olishi, ammo uzoq vaqtgacha bu niyatga qo‘l urishga jur’at etmay kelganligi va shu boisdan ham doimo xijolat chekib yurganligi, endilikda esa to‘rt dostonni tugatib, so‘nggisiga qalam urganligi haqida so‘z yuritadi, ijodiy niyatning asosiy qismi amalga oshganidan shukronalar aytadi.

N. “S.I.”ni yozishga kirishmasdan oldin (“Xamsa”ning boshqa dostonlari bilan bo‘lganidek) juda ko‘plab tarixiy-adabiy manbalarni to‘plab o‘rganadi, aytish mumkinki, jiddiy ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshiradi, o‘z dostoniga, ma’lum ma’noda, tarixiy asar sifatida ham qaraydi. Jumladan, xuddi shuning u-n ham bevosita doston syujeti bayoni oldidan Eron (Ajam) mamlakatlarida qadimda hukmronlik qilgan to‘rt tabaqa shohlar sulolasining qisqacha xronikasini berishni zarur hisoblaydi.

“S.I.”ning asosiy qismi esa o‘z ichki qurilishi jihatidan “X.”dagi boshqa dostonlarning birortasiga ham o‘xshamaydi. Doston, aytilganidek, yirik davlat va jamoat arbobi bo‘lmish muallifning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, axloqiy-didaktik qarashlarining badiiy majmuasi. Asar N.ning o‘ziga zamondosh hukmdorlar va taxtga da’vogar valiahdlarga davlatni boshqarish yuzasidan pand-u nasihat-xiradnoma tarzida yozilgan. Doston xuddi shu holat va bosh maqsadga to‘la mos keluvchi o‘ziga xos ichki qurilishga

ega. Asosiy syujet b-n bog‘liq har bir bob to‘rt “mustaqil” bo‘laklardan tashkil topgan. Bunday boblarning shakliy sxemasini quyidagicha belgilash mumkin:

1. Falsafiy-nazariy g‘oya-tushuncha, umumlashma mushohada-xulosadan iborat bo‘lgan kirish.

2. Kirishning asosiy nuqtalarini dalillovchi, hayotiy misol-lavhalarda namoyish etuvchi naql, afsona yoki tarixiy-real voqeadan iborat hikoyat. 3. Iskandarning, asosan, Arastu, bir o‘rinda Suqrot va o‘n oltinchi bobda Luqmon b-n hayot va jamiyat jumboqlari, shuningdek, ilm va tafakkur yuzasidan ilmiy-fantastik savol-javoblari. 4. Iskandar amaliy faoliyatidan aniq lavhalar bayoni, Iskandar xarakteristikasi, shaxs va hukmron sifatidagi qiyofasining ochilishi.

Ta’kidlash lozimki, dostonning bunday badiiy qurilmasi o‘tmish xamsanavislar tajribasiga suyanilgan holda shoirning o‘z ixtirosi bo‘lib, u kuzatgan g‘oyaviy-estetik maqsadga – Iskandarni inson, hukmron, sarkarda, davlat arbobi, donishmand, ma’rifatparvar va ilm-u hunar homiysi sifatida xarakteristikasini berish niyatiga xizmat qiladi, N.ning ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-didaktik qarashlarini siqiq va yaqqol ifodalashda qulayliklar yaratdi, muallif g‘oyalarining hayotiy misollarda, hikoyatlar yordamida o‘quvchi ongiga yaxlit ko‘chishini ta’minlaydi.

M-n, asosiy birinchi bobning avvalgi (nazariy) qismida ma’naviy boylik himmat va saxiylik haqida, oliy hikmatning eng yuksak insoniy fazilat ekanligi, u insonni e’zozlashi, ko‘klarga ko‘tarishi to‘g‘risida va aksincha, baxillik, mol-u dunyoga hirs qo‘yish esa yaramas belgi ekanligi, insoniylik g‘ururini poymol etuvchi, tubanlashtirib, sharmandalik sari eltuvchi ekanligi xususida so‘z boradi. Qismda oliyhimmatli gado oldida behimmat shohlar gado darajasida tubanlashadi, degan g‘oya olg‘a suriladi.

Ana shu nazariy-falsafiy umumlashma esa bobning ikkinchi qismi sifatida keltirilgan “Iskandar bila ul gadolik ixtiyor etgan podshoh, balki filhaqiqat podshohliqqa yetgan gado hikoyati...” aniq hayotiy “tarixiy” misol orqali – himmatining balandligi jihatidan shohlikni qabul qilmay (pisand bilmay), o‘zini mag‘rur tutgan dono shaxs timsolida dalillanadi, keyin bobning pand-o‘gitdan iborat bo‘lgan qismi – “hikmat” berilib, unda bosh qahramonning shu yetakchi mavzu bo‘yicha o‘zining doimiy hamrohi va maslahatchisi donishmand Arastu b-n savol-javob tarzidagi suhbati keltiriladi. Ana shunday ma’lum nazariy tayyorgarlikdan – o‘quvchiga bayon etilajak voqea-hodisaning o‘zak nuqtalari bo‘yicha umumiy ma’lumot-tushunchalar berilganidan keyingina bobning asosiy to‘rtinchi qismi keladi. Birinchi bob valiahd Iskandarning o‘zini noloyiq va tayyor emas hisoblab, avvaliga taxtni egallashdan bosh tortishi, xaloyiq talabiga ko‘ra, shohlikni qabul etishi, xalq va mamlakat manfaatlari yo‘lida ko‘plab xayrli ishlarni amalga oshirishi, adolat quyoshi b-n jahonni yoritib, zulm ahlini yer yuzidan uloqtirishi tafsilotidan iborat.

2-bobda esa adolat muammosi qo‘yiladi. Unda ham avvalida (kirish qismida) adolat haqida so‘z yuritiladi, ayniqsa, hukmdorlar u-n adolatning zarurligi, ular faoliyati va rolini xarakterlashda birdan-bir bosh mezon ekanligi ta’kidlanadi.

Aytish kerakki, xuddi shu bobni tashkil etuvchi qismlarda N. butun ijodida olg‘a surilgan ilg‘or ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-didaktik qarashlarning adolat kategoriyasi b-n bog‘liq qator muhim nuqtalarini ravshan kuzatish mumkin. Jumladan, mamlakat hukmronlarining qaysi dinga mansubligiga qarab emas, balki o‘z faoliyatida adolatli yoki adolatsiz ekanligiga qarabgina baholanadi, degan muhim tezis shu bobning birinchi qismida olg‘a surilgan.

Shoir ta’kidicha, “Anushurvon garchi kofir bo‘lgan” esa-da, mamlakatni adolat b-n boshqargani u-n har qanday xudojo‘y shohlardan yuqori turadi, cheksiz tahsin va maqtovga loyiq va aksincha:

Vale, kimsakim, zulm anga komdur,
Bu olamda mardud-u badnomdur!

Bu g‘oya bobning 2-qismida – o‘z adolatli qilmishlari u-n “u dunyo”da mangu rohat va izzatga sazovor bo‘lgan shoh Mahmud hikoyatida yana bir bor “dalillar”da namoyish etiladi. Hikoyatning real g‘oyasi (“qissadan hissa”) o‘z o‘rniga taxtga o‘tirgan Mas’udni “adl bilan ish tutish”ga da’vatda, va eng muhimi, valiahdning bu o‘gitni to‘la qabul etganligining ta’kidida ko‘rinadi:

Adolat tariqin shior ayladi,
Ato buyrug‘in ixtiyor ayladi.

Iskandar b-n donishmand Arastu o‘rtasidagi savol-javob ham (hikmat qismi) shu yetakchi mavzu doirasida bo‘lib o‘tadi.

Iskandarning adolat orqali hukmron qanday real natijalarga erishishi mumkin, degan savoliga donishmand “adl natijasi jahongirlik ekanini”, “odilga jahon saodati” etishajagini isbotlab beradi, jumladan, quyidagicha ta’kidlaydi:

Shahikim, anga adl bunyod o‘lur
Natija bukim – mulki obod o‘lur!

Bobning yakunlovchi qismi shu 3 qismning mantiqiy davomi bo‘lib, bevosita Iskandar faoliyatidan hikoyat qiladi. Adolatni o‘ziga “shior aylagan” Iskandar o‘z mulkini orasta qildi, so‘ngra esa butun yer yuzini va hatto suv sathini ham qo‘lga kiritdi. U bunday ajoyib natijalarga faqat odilligi tufayli erishdi. N. Iskandarning ana shunday adolatli yurishlariga va erishgan zafarlariga yaqqol misol sifatida uning Doroga qarshi chiqishining tafsilotini beradi. Iskandar va Doro to‘qnashuvida adolat Iskandar tarafida edi. Dostonning asosiy 2 bobi mundarijasi b-n bu qisqa tanishish shuni ko‘rsatadiki, shoir o‘z asari strukturasini nihoyatda puxta tuzgan: har bir bobni tashkil etuvchi 4 qism, bir tomondan, ma’lum mustaqillik xarakteriga ega (bu mustaqillik, ayniqsa, boblarning hikoyat va hikmat qismlariga tegishli), ikkinchi tomondan, ular mavzu va g‘oya jihatidan o‘zaro mustahkam bog‘liq va birgalikda mantiqiy yaxlitlikni tashkil etadi – har bobning oldingi uch ichki qismi asosiy 4-qism manfaatlariga xizmat qiladi, uning yechimiga (yoki masalaning qo‘yilishiga) zamin hozirlaydi, nazariy-falsafiy jihatdan asoslaydi, yetakchi g‘oya-da’voni hayotiy misollarda dalillaydi, va aksincha, hajm jihatidan bobning har uchala qismidan ham katta bo‘lgan to‘rtinchi qism nazariy-falsafiy kirish, hikoyat va hikmatlarda olg‘a surilgan g‘oya-da’voni Iskandar shaxsiyati tavsifi va faoliyatidan aniq lavhalarda namoyish etiladi.

Bundan “S.I.” dostonining yana bir xususiyati yuzaga chiqadi – doston voqea-hodisalarni bayon etish jihatidan ham, aytaylik, “F.Sh.” yoki “L.M.”dan sezilarli farq qiladi” unda bosh qahramonning son-sanoqsiz yurishlar va to‘qnashuvlarga to‘la boy tarjimayi holi xronologik tartibda batafsil bayon qilinmaydi, bosh qahramonning shaxsiy-maishiy hayotiga deyarli o‘rin ajratilmaydi. Iskandarni, avvalambor, hukmron va orif arbob sifatida ko‘rsatishni bosh maqsad qilib olgan shoir Iskandar shaxsiyati va faoliyatidan faqat shu maqsadning yorqin yechilishiga xizmat qiladigan lavhalarnigina qalamga oladi. Shu tariqa bevosita muallif “meni” nomidan bayon etiluvchi falsafiy-nazariy kirishlardan tashqari, Iskandarning ijtimoiy shaxs – hukmdor, fotih sarkarda, donishmand va binokor sifatidagi amaliy faoliyatidan o‘n yetti yirik lavha, shuncha hikoyat va Iskandar b-n hakim-donishmandlar o‘rtasidagi savol-javoblar tarzida qurilgan hikmatlar dostonning asosini tashkil etadi. Shu o‘rinning o‘zida ta’kidlash lozimki, hikoyatlar hikmat deb bejiz atalmagan savol-javoblar ko‘p jihatdan mustaqil kichik badiiy asarlar darajasida bo‘lib, shartli ravishda alohida olingan taqdirda ham o‘z g‘oyaviy-badiiy va estetik ta’sir quvvatiga egadir. Ammo bunday ta’kiddan, bu “mustaqil” mo‘jaz asarlar doston boblari tarkibiga sun’iy yopishtirilgan, zo‘rma-zo‘raki tirkalgan, degan xulosaga kelish xato bo‘ladi. Aksincha, hikoyat va hikmatlarning har biri dostonning tugal, yaxlit jismining zaruriy va tarkibiy bir qismi bo‘lib, umumiy yagona g‘oyaviy-badiiy yo‘nalishning

shaklllanishida faol ishtirok etadi. “Iskandar bila gadoliq ixtiyor etgan podshoh”, “Ikki jahondor muxolafati... va ikki yor muvofaqati...”, “Sulton Abu Said Ko‘ragon hikoyati”, “Ikki rafiq hikoyati” va boshqalar bu fikrga yorqin dalil bo‘la oladi. Savol-javoblar (hikmatlar) xususida ham shuni aytish kerak. Butun dostonga, jumladan, undagi hikoyatlarga xos bo‘lgan ijtimoiy-falsafiy va axloqiy-didaktik yo‘nalish bu hikmatlar turkumida, ayniqsa, bo‘rtib ko‘rinadi. Ularda hayot va jamiyatning turli-tuman jumboqlari haqida, umuman, inson va insoniyat, jumladan, xulq-atvor, aql-idrok, ilm-fanning qudrati xususida yuqori darajada bahslar yuritiladi, foydali pand-u o‘gitlar olg‘a suriladi.

Dostonda Iskandar, birinchi navbatda, diyonatli fuqaro va mamlakat taqdiri ustida tinmay qayg‘uruvchi, o‘zini “oddiy banda”lar b-n teng bilib, zolimlarni jazolab, har qanday zo‘ravonlikka barham beruvchi, yurtida qat’iy intizom va osoyishtalik, jamiyat a’zolari o‘rtasida esa halollik va insof barqaror eta olgan adolatli hukmron, ideal shoh kabi gavdalanadi. U ham jismoniy, ham ma’naviy yetuk, chuqur bilim va tajribaga ega tadbirkor, ilm-u fan qudratiga ishonib, donishmandlarni o‘ziga hamroh tutgan, hunar ahliga homiylik qilgan barkamol shaxs. Shunga qaramay, dostonda ta’kidlanishicha, u tinmay izlanishda bo‘lib, o‘z bilimini oshirishga katta ahamiyat beradi:

Jahon ahliga ilm-u donoligi,
Xirad quvvatidin tovonoligi.

Bo‘lo‘b qismi ham hikmat-u ham bilik,
Yana chekmayin o‘rganurdin ilik...

U ketma-ket buyuk zafarlarga erishgan jasoratli va topqir, sipohiga nisbatan g‘amxo‘r sarkarda. “Bahr-u bar”ni egallashga kirishgan Iskandar aslo bosqinchilik qilish, talon-taroj orqali boylik orttirish maqsadlarini ko‘zlamaydi. Aksincha, N. uning Kashmir fathidan keyingi ishlari haqida so‘zlab, shunday misralarni bitadi:

Yomonlardln ofokni pok etib,
Vale, yaxshilarni tarabnok etib,
Etib dashtni adlidin bo‘ston...

Hindiston taslim bo‘lganida esa, ikki yillik soliqlarni bekor qilganini e’lon qiladi:

Xaloyiq, boshidin olib ehtiyoj
Maof ayladuk ikki yillik xiroj.

O‘ziga jangsiz itoat etgan Hindiston poytaxti Dehli shahriga son-sanoqsiz askarlarining joylashishini man etish ham Iskandarning adolatli xalqparvar hukmron sifatidagi ijobiy xislatlariga, uning fotihlik intilishi aslida talon-taroj emas, balki xaloskorlik ekanligining yorqinroq ochilishiga muhim hissa bo‘lib qo‘shiladi. Bu qarorda Iskandar shahar aholisiga zarar yetkazmaslik kabi oliyjanob maqsadni ko‘zlaganini ochiq ta’kidlaydi:

Dedi shahki: Shahar ichra sig‘mas – sipoh,
Kerak beshada elga oromgoh.

Va gar sig‘sa dog‘i emas dilpisand
Ki, yetgay raoyog‘a andin gazand.

Ammo uning butun insoniyat oldidagi eng buyuk xizmati shundaki, doston voqealari rivojiga ko‘ra, odamxo‘r vahshiylar – itsimon maxluqlar (“mo‘r xayli”)ni qirib tashlaydi, ko‘plab talofat va cheksiz azob-uqubatlar ko‘rayotgan xalqlarning talablariga ko‘ra yovuz kuch ya’jujlarga qarshi jangga otlanadi, ular yo‘liga metindan o‘tib bo‘lmas g‘ob-sad (devor) qurdiradi.

Iskandarning donishmand inson sifatidagi shaxsiyati va adolatli hukmron sifatdagi faoliyatiga xos fazilat va ijobiy amallar doston voqealari fonida birin-ketin ochila boradi.

Xalq xohishiga ko‘ra vafot etgan otasi o‘rniga taxtga o‘tirgan Iskandar davlat va mamlakat ishlarini adolat b-n yurgizadi, ikkinchi kuniyoq “bobmom” – xalq u-n umumiy qabul e’lon qiladi, kimning qanday dard-u talabi bo‘lsa, hech tap tortmay bayon qilish huquqini beradi, har mushkulotni odilona hal etishga va’da beradi:

... Ayon aylasun reshi dard-u g‘amin,
Yoqay dod bermak bila marhamin!

U chindan ham zolim va zo‘ravonlarni qattiq jazolaydi, mamlakatda tartib-intizom o‘rnatadi, fuqaroni soliqdan ozod qiladi, bozor narx-navosini, tosh-tarozusini tartibga soladi, savdo karvonlarini qaroqchilar xavfidan qutqaradi:

Tamomin ulus boshidin qildi daf’
Yetushsun, deb ondin xaloyiqqa naf.

Bunday raiyatparvarlik va adolatli siyosat tez orada o‘zining ajoyib mevalarini beradi:

Bu yanglig‘ chu oz vaqt tuzdi rusum,
G‘aniy bo‘ldidar adlidin ahli Rum.

Idrokli yosh hukmron o‘z saroyiga Arastu, Suqrot, Luqmon, Aflotun kabi mashhur donishmandlar bosh bo‘lgan necha yuzlab olim-hakimlarni, fozillar va hunar ahlini to‘playdi, ular shaxsiyatiga g‘amxo‘rlik va faoliyatiga homiylik qiladi, har bir muhim masalada kengashib, bamaslahat ish yurita boshlaydi. Keyinchalik xuddi shu donishmandlar guruhi va hunar ahli Iskandarning bevosita rahbarligi va ishtirokida bir necha yirik kashfiyotlar qiladilar, dengiz sathi va suv ostida ilmiy ishlarni bajaradilar.

Iskandarning adolatsiz boj to‘lashdan bosh tortishi Doro b-n nizo va urushga sababchi bo‘ladi. Dostonning biz yuqorida qayd etgan o‘ziga xos qurilishi N.ga bu harbiy to‘qnashuv tafsiloti bayoniga kirishmasdan oldin, umuman, barcha davrlar u-n nihoyatda aktual va nihoyatda jiddiy ijtimoiy-siyosiy hodisa – urushlar va ularning kishilik jamiyatida katta falokat ekanligi to‘g‘risida o‘zining qat’iy salbiy baho munosabatini ifodalash imkonini bergan. Bu baho-munosabat muallif “men”ining – yirik davlat va jamoat arbobi va ulug‘ insonparvar mutafakkirning dostonda olg‘a surgan muhim g‘oyaviy-nazariy xulosa va tavsiyanomalaridan biri darajasiga ko‘tarilgan. N. o‘zi ko‘plab guvoh bo‘lgan feodal urushlarini, ochko‘z hukmronlarning yovuz manfaatlari yo‘lida bolani otaga, do‘st-u birodar va qarindosh-urug‘larni bir-biriga qarshi qonli qurol ko‘tarishga majbur etgan qirg‘inlarni ta’sirchan tasvirlaydiki, uni o‘qigan har bir o‘quvchida (u qaysi va qanday jamiyatga mansub ekanligidan qat’i nazar) urushga nisbatan g‘azab-nafrat shakllantiradi. Chindan ham, urushlarning dahshatli oqibati va fojeali mohiyatini, insoniyat tabiati va ma’naviyatiga batamom yot ekanligini N.ning mana bu misralaridagidek lo‘nda va yorqin ifodalovchi boshqa namunalarni adabiyotimiz tarixidan topish qiyin:

Adovatga bog‘lab kamar ikki shoh,
Jahon ahlini aylab ikki sipoh

Bori tortibon qatl uchun tig‘i tez,
Qilib tig‘ tez o‘ldururg‘a sitez.

Ato bir taraf gar erur, filmasal,
Yana jonib o‘lsa o‘g‘ulg‘a mahal,

Ikisiga kin o‘ti solg‘ay g‘azab,
Ul o‘t qo icharga qilib tashna lab.

Ato jon berib o‘g‘lin o‘ldurgali,
Ug‘ul ham anga tig‘i kin surgali.

Qarindosh topsa qarindoshini,
Damodam tilab kesgali boshini.

Tushub oshnolarg‘a begonaliq,
Ketib hamnishinlarg‘a hamxonaliq.

Bu nav’ o‘lsa mundoq iki zot aro,
Ne bo‘lg‘ay gumon qil iki yot aro?!

Xuddi shu o‘rinda N. masalaning yechimini ham keltiradi, qirg‘in urushlarga barham beruvchi tavsiyanomani hikoyat zaminiga joylab yuboradi. Bu – ikki hukmdor o‘rtasidagi nizo oqibatida “jahon ahli xirmaniga balo o‘ti” tutashgani, va aksincha, ikki do‘stning o‘zaro ahlligi

va sadoqati elni halokatdan asrab, “jahon ahlidin tig‘i kinni ko‘targan”ligi haqidagi hikmatli hikoyatdir. Unda davlatlar o‘rtasidagi har qanday nizo va urushlar qat’iy rad etiladi, do‘stlik va tinch-totuvlik g‘oyalari olg‘a suriladi.

Doston voqealari davomida adolat bayrog‘ini ko‘targan Iskandar “adadda biyobon qumidin ham fuzun” “yer sathiga sig‘maydigan” sipoh to‘plagan Doro ustidan g‘alaba qozonadi, so‘ngra boshqa yurtlarni ham qo‘lga kiritadi. Faqat Kashmir shohi, Hind royi va Xitoy xoqoni bo‘ysinishdan bosh tortadilar. O‘z donishmandlari ixtirolari yordamida zolim Mallu sehrini barbod etib, Kashmirni qo‘lga kiritgan Iskandar b-n Hind va Xitoy hukmronlari tinchlik muzokalarini boshlaydilar, urush-qirg‘insiz unga tobe’ bo‘ladilar. Iskandarning oqilona tadbirlari tufayli johillik ustidan aql-idrok, nizo-janjal ustidan do‘stlik, totuvlik g‘alaba qiladi. Iskandarning mag‘rib tomon yurishi va u o‘lkalarda yashaydigan xalqlar boshiga uzoq yillar davomida muntazam ravishda falokat yetkazuvchi “vahshiy ulus” – yirtqich maxluqlarning tor-mor etishi keyinchalik esa, ulardan ham dahshatliroq ofat – yovuz gala ya’jujlar yo‘liga o‘tib bo‘lmas to‘siq baland va mustahkam devor qurdirishi odil hukmron shaxsiyatining elparvarlik qiyofasini yaqqolroq gavdalantirishda, harbiy yurishlarining esa xaloskorlik mohiyatini ochishda yorqin dalillar darajasiga ko‘tariladi. N.ning Qirvon yurtlari xalqlariga omonlik va to‘kinlik keltirgan bu buyuk inshootni barpo etishda turli millat vakillarining ishtirokini ko‘rsatishi, jumladan, “Farang, Rus, Shom, Rum” o‘lkalarining “ustod me’morlari” o‘z bilim-hunarlari b-n jiddiy ulush qo‘shganligini ta’kidlashi alohida e’tiborga loyiq.

“Olamni tamom olgan” Iskandar o‘ziga doimiy hamroh “donish ahlini” yig‘ib, katta “anjuman” tuzadi, o‘zining suv sathini ham egallash, muhit ostiga sayohat uyushtirish rejasini ma’lum qiladi, shu maqsadda uch ming kema yasattirib, tegishli asbob-uskunalarni joylaydi. Suqrot hakimni ilmiy rahnamo tayinlab, yo‘l-yo‘lakay “yetti daryo bila o‘n ikki ming” orolni “fath etadi”, nihoyat “Muhit markaziga yetadi”. N. ta’kidicha, Iskandar va uning donishmand hamrohlari safar vaqtida muhim ilmiy-tekshiruv ishlari va tajribalar olib boradilar, dengiz sathi va chuqurligini o‘lchaydilar, ko‘rgan-kechirganlarini qayd etib beradilar, bu ma’lumotlarni kabutarlar yordamida quruqliqqa muntazam yetkazib turadilar. Ko‘p yillik mashaqqatli dengiz safari qirg‘oqqa qaytgan Iskandar sog‘ligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, u tobora kuchdan qolib, holdan toyib boradi. Nihoyat jazirama qumloqda yiqiladi, kimdir qalqonni uning boshiga soyabon qiladi. Umri tugayotganini tushungan Iskandar onasiga maktub-vasiyat yo‘llaydi.

Iskandar obrazining o‘quvchi ko‘zi oldida to‘la ideal sifat gavdalanishida bu maktubning o‘rni juda katta. Gap shundaki, unda Iskandar shaxsiyatining yana bir muhim fazilati – odamiyligi, oddiyligi, yuksak odob-axloqi onaga cheksiz hurmati orqali namoyon bo‘ladi. Chindan ham, maktub “meni” bu o‘rinda butun-olamni o‘ziga tobe’ etgan dabdabali va salobatli fotih sifatida emas, balki mushtipar volida oldida o‘z farzandlik burchini to‘la o‘tay olmagan va shu boisdan ham o‘zini gunohkor bilib, uzrxohlik etayotgan rizojo‘ o‘g‘il, har qanday g‘urur va kiborlikdan xoli oddiy inson kabi namoyon bo‘ladi.

Iskandarning shaxsiy xislat-fazilatlari, uning hukmron sifatidagi ko‘p qirrali butun faoliyati keyingi davr kishilariga, birinchi navbatda, shoh-shahzodalarga ibrat-namuna bo‘lishi kerak. N.ning dostondan kuzatgan asosiy g‘oyaviy maqsadlaridan biri xuddi shu.

Butun jahonni zabt etib, uning cheksiz boyliklarini qo‘lga kiritgan Iskandarning bu dunyodan quruq qo‘l b-n ketishi tasviri nihoyatda ta’sirchan va chuqur falsafiy mazmundor detal bo‘lib xizmat qiladi. Shu muhimki, Iskandarni yirik donishmand-mutafakkir tarzida ham tasvirlagan N. quruq qo‘lni, boshqalarga saboq bo‘lsin deya, tobutdan tashqariga chiqarib qo‘yish g‘oyasini Iskandarning o‘z tilidan olg‘a suradiki, bu hol obrazning yanada mukammal chizilishiga jiddiy hissa bo‘lib qo‘shiladi. Hukmdor jasadini uning

o‘zi bino qilgan Iskandariyaga qadar butun uzoq yo‘lda xuddi shu holatda eltishadi. “H.A.” dostonida xuddi shu mazmunni ifodalovchi maxsus hikoyat ham uchraydi.

Bevosita doston voqeasi azador onaga Iskandarning doimiy hamrohi bo‘lgan yetti hakim (Aflotun, Suqrot, Balinos, Buqrot, Xurmus, Farfunyus, Arastu)ning ta’ziya-taskini va pand-u nasihati bayoni b-n yakunlanadi. Keyin yana ilova boblar boshlanib, ularda Sulton Husayn Boyqaro va valiahd-shahzoda Badiuzzamon madh etiladi, qadimgi Yunon donishmandlarining qisqa-qisqa “xiradnomalari” keltiriladi. Bevosita Badiuzzamonga qaratilgan bu “xiradnoma”larni, umuman, davr shoh-shahzodalariga davlat va mamlakatni idora etish nizomi deyish mumkin. Jumladan, Arastu shunday ta’kidlaydi:

Xaloyiqqa ko‘rma, qilib benavo,
O‘zungga ravo ko‘rmaganni ravo!

Suqrot “Xiradnoma”sida mana bularni o‘qiymiz:

Ulus ranjida ehtimol aylama,
O‘zungga bu otni harom aylama.
Raiyatni adlingdin osuda tut!

Yana bir donishmand Asqalinus esa bo‘lajak hukmronni quyidagicha ogohlantiradi:

Qayu shahki, yo‘q adl ila dod anga,
Ulus birla mulk o‘lmas obod anga.

Chu shoh zulm sori uzotti ilik
Ochildi ulug‘ zulm o‘yiga eshik.

...Kerak shah adolat shior aylagay,
Ki, zulm ahlini xoksor aylagay.

Xalq o‘rtasida katta obro‘ va ishonchga ega bo‘lgan mashhur donishmandlar tilidan aytilgan, aslida esa, yirik davlat va jamoat arbobi, ulug‘ mutafakkir N.ning XV asr tarixiy sharoiti va aniq voqealari asosida shakllangan tugal ijtimoiy-siyosiy konsepsiyasini lo‘nda ifodalovchi bu “xiradnoma”lar dostonning xulosasi, “qissadan hissa” kabi, adolatli hukmron Iskandar hayoti va faoliyati tajribasining bosh ibrati, asosiy saboqlari kabi o‘qiladi. “S.I.” N.ning ulkan merosidagi ma’rifatparvarlik g‘oyalarining muhim nuqtalarini o‘zida jamlovchi asar sifatida ham qimmatli. Dono hukmdorning ideal obrazini chizuvchi dostonda ma’rifat, ilm-u fanning biron yaratuvchi qudrati va cheksiz imkoniyatlari dunyoga mashhur donishmandlar (Arastu, Aflotun, Suqrot, Luqmon, Faysog‘urs, Xurmus, Buqrot va b.)ning amaliy faoliyatlari, olamshumul ixtirolari va purhikmat pand-nasihatlari, ko‘rsatma va o‘gitlari vositasida namoyish etiladi.

Shu muhimki, Iskandar b-n doimiy muloqotda va ajralmas hamroh bo‘lgan donishmandlar o‘z bilim va tajribalarini faqat ezgulikka, xalq farovonligi va mamlakat obodligiga xizmat ettiradilar, hukmronni yaxshilik va poklikka, adolat va insofga da’vat etadilar. Doston voqealari zo‘ravonlik, vayronalik va talon-tarojga qarshi Iskandar ko‘rgan barcha amaliy tadbir-u choralarda nomlari zikr etilgan donishmandlar boshliq olim-hunarmandlarning bilim va kashfiyotlarining hal etuvchi rolini ta’kidlab ko‘rsatishi bejiz emas. Dostonning sarguzasht-qahramonlik mazmuni va jangovarlik ruhi, ijtimoiy-siyosiy xarakteri va falsafiy-didaktik yo‘nalishiga to‘la mos holda N. undagi ayollar obrazlarini ham, birinchi navbatda, ijtimoiy faol qiyofada gavdalantiradi. Asarda ayollar tasviridagi an’anaviylik (ularning tashqi belgilari, husn-u latofati, maftunkor go‘zalliklari madhi) deyarli ko‘rinmaydi. Aksincha, ular o‘z qadr-qimmati, jamiyatdagi o‘rnini to‘la his etgan kuchli, dono, chuqur mulohazakor davlat arbobi (m-n, Bonu), aql-u farosatda, jang-jadallarda erkaklardan aslo qolishmaydigan, yovuzlik b-n mardona kurashib, uni mag‘lub etgan qo‘rqmas va dovyurak jangchi (lu’bati chin), o‘z ayollik g‘ururi va pokiza his-tuyg‘usining toptalishiga ko‘nikmay, sevish-sevilish huquqini himoya etib, hech bir tap tortmay, hukmron b-n bahsga

kirishgan erksevar (Mehrnoz) shaxslar sifatida namoyon bo‘ladilar.

Xitoy hoqoni va Hind royi doston ijobiy obrazlari qatoridan o‘rin olgan. Ularning har ikkalasi ham tadbirkor, farosatli, real sharoit va imkoniyatlarni hisobga olib, oqilona ish yurituvchi, qirg‘in urushlardan ko‘ra do‘stlik munosabatlarini, tinch muzokaralarni afzal ko‘ruvchi, o‘z yurtlari osoyishtaligi ustida qayg‘uruvchi shoh sifatida gavdalanadi. Oqibat natijada, xuddi shunday ijobiy xislat-fazilatlari b-n bu obrazlar N. orzu etgan ideal hukmron qiyofasini boyitadi, orif, odil, oqil hukmron obrazining yangi qirralarini ochadi. Mallu esa, bu obrazlardan farqli o‘laroq, yovuz, o‘z manfaati yo‘lida butun odamzodni halokat sari eltishdan toymaydigan makkor shohlar timsolidir. Dostondagi asosiy obrazlardan biri Dorodir.

U ko‘p jihatdan murakkab shaxs sifatida chizilgan. Doro bir tomondan g‘ururga berilib, o‘z kuch-qudratiga qattiq ishongan, barcha o‘lkalar va xalqlarning so‘zsiz itoat etishini, muntazam ravishda katta soliqlar to‘lab turishini tabiiy deb bilgan, oltin-boylikka hirs qo‘ygan zo‘ravon va ochko‘z shaxs. Ikkinchi tomondan, inson, ota sifatida ijobiy xislatlardan xoli ham emas. Doroning o‘limi dostonda zo‘ravonlik, talon-taroj etish siyosatining, o‘ziga bino qo‘yish, o‘zgalar qobiliyatiga mensimay qarash munosabatining, adolatsiz intilish va tamagirlikning halokati sifatida tasvirlanadi.

“S.I.” dostoni N. merosida xalq og‘zaki ijodining sezilarli ahamiyatini yaqqol ko‘rsatuvchi manba hamdir. Xalq eposlari ruhidagi sarguzasht-qahramonlik lavhalari chizilishida, ertaknamo g‘aroyib voqealar va qiziqarli hodisalar bayonida o‘quvchilar ongini sehrlab oluvchi murakkab tilsimlar va sirli jumboqlar tasvirida, ayniqsa, yovuz kuchlarning vahshiy intilishlari va jirkanch qiyofalarini nafrat qo‘zg‘atuvchi shaklda gavdalantirishda N.ning folklorni chuqur bilganligi va barakali ta’sirlanganligi ko‘zga yaqqol tashlanadi.

Mana bu baytlar esa N.ning she’riy marosim folkloridan ham juda yaxshi xabardor bo‘lganligini, xalq she’riyatining shakli va ruhiyasini, tasviriy vosita va obrazlari borlig‘ini chuqur idrok etganligini ishonarli ko‘rsatadi:

Mug‘anniy tuzub chinga vaznida chang,
Navo chekti: “hay-hay o‘lang, jon o‘lang!”

Desang sanki: “Jon qardoshim, yor-yor!”
Men aytayki: “Munglug‘ boshim, yor-yor!”

Mengizlari gul-gul, mijalari – xor,
Qabog‘lari keng-keng, og‘izlari – tor”.

Butun doston davomida shoirning xalq maqol-matallariga, ibratli ibora va birikmalariga obrazlar xarakterini ochishda, voqea-hodisalar mazmunini o‘quvchilarga to‘la yetkazishda, o‘z baho-munosabatini aniqlashtirishda ko‘plab murojaat etganligini qayd etish mumkin.

Doston jismida masal xarakteridagi bir necha hikoyatlar (yolg‘onchining uyi kuyishi, “Ul kabutar hikoyatikim”, “Bulbul hikoyatikim” va boshqalar)ning uchrashi ham oddiy tasodif emas, albatta. Bunda ham xalq og‘zaki ijodi an’analarini qayd etish qiyin emas.

“S.I.” N.ning faqat ijtimoiy fanlar bo‘yichagina emas, balki barcha tabiiy fanlardan ham chuqur bilim va qomusiy ma’lumotlar sohibi bo‘lganligiga, aql-idrok, ilm-fan va tajriba-kuzatuvning cheksiz imkoniyatlari va kuch-qudratini to‘la his etib, bu borada keng ilmiy tafakkur yuksakligidan, o‘z ta’biri b-n aytganda, “xayol elchisini har taraf choptira olgan”ligiga yaxshi misol ham bo‘la oladi. Chindan ham, dostonda, aytaylik, fan-texnika beqiyos rivojlangan keyingi asrlarga kelibgina kashf etilgan ilmiy ixtirolarni eslatuvchi murakkab asboblar (Suturlob, Iskandar ko‘zgusi)ning juda jonli va aniq tasvirlanishi, bir necha o‘nlab mamlakat va tarixiy shaharlar, turli-tuman xalq-elatlar nomlarining qayd etilishi yoki doston qahramonining okeanda katta chuqurlikka maxsus qurilmada tushib, suv osti hayo-

tini o‘rganishi, undagi jonivorlar xatti-harakatini kuzatishi muallifning ana shu qomusiy bilimidan darak beradi.

N. “S.I.” dostoni oxirida butun “X.” u-n yakunlovchi maxsus bob berishni ma’qul topgan. Bu bobda shoirning “X.”ga kirishish oldidagi ichki kechinma va ruhiy iztiroblari, ijodiy maqsadning ulkanligi va nihoyatda mas’uliyatliligini to‘la his etish va shu bois tabiiy andisha hamda ikkilanishlar (“Desam tark etay – qo‘ymayin himmatim, Desam zo‘r etay – etmayin quvvatim”) o‘ziga xos bir shaklda nihoyatda samimiy va ta’sirchan ifodalanadi. Sirli surush nido-da’vatiga ko‘ra, ijodiy ishga qo‘l urolmay yurgan muallif ustoz-pir Jomiy huzuriga boradi, uning ilhombaxsh so‘zlaridan ruhlanib, dadil qalam tebrata boshlaydi va Nizomiy va Xusravlardan farqli o‘laroq juda qisqa muddat ichida besh dostonni qiyomiga yetkazadi. Muhtasham “X.”ni Jomiyga taqdim etishi, uning asar bilan tanishib chiqishi hamda shoirni o‘tmishning buyuk ijodkorlari Sa’diy, Firdavsiy, Unsuriy, Sanoiy, Xoqoniy, Anvariy, Nizomiy va Xusrav Dehlaviylar b-n xayolan uchrashtirish tasvirida, ayniqsa, quyuqlashadi, shunga muvofiq bayon ham sirli ohang kasb etadi. Butun “X.” u-n xotima o‘rnida bo‘lgan bu bob, ayni zamonda, faxriya xarakteriga ham ega.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Бертельс Е.Э. Роман об Александре и его главные версии на Востоке. Қаюмов А. Садди Искандарий. – Т., 1975.*

A.A.

“SADDI ISKANDARIY” DOSTONINING MUQADDIMA QISMLARI – N. yubiley qo‘mitasining 1941-y.da “Qo‘lyozma huquqida” ishorasi ostida amalga oshirilgan bu nashriga M.Shayxzoda mas’ul muharrirlik qilib, u quyidagi izoh b-n ochiladi: “X.”dagi beshinchi doston “S.I.” bosmaga tayyorlanganda, uni mumkin qadar to‘liq olishga harakat qilingan va shu asosda, asli dostonga kirishishga qadar bo‘lgan ayrim muqaddimalar ham kiritilgan edi. Biroq kitobning hajmi kattalashib ketgani sababli bu muqaddimalar kitobdan tushirib qoldirildi va foydalanuvchilar u-n material sifatida ayrimlari nashr qilindi. Dostonning “X.” takmili to‘g‘risida” qismidan to “Iskandar dostonining og‘ozikim..” qismigacha bo‘lgan o‘n bir bobidan iborat bu kitobning bir sahifasida doston matni berilib, qarshisidagi sahifada har bir baytning nasriy bayoni – soddalashtirilgan mazmuni keltirilgan. Nasriy bayon kim tomonidan amalga oshirilgani qayd etilmagan.

A.A.

SAJ’ (ar. − bulbul, to‘ti, qumri kabi xushovoz qushlar ovozining uyg‘unlashib kelishi, o‘lchovi) – bir yoki bir necha gapdagi ayrim so‘zlarning yo vaznda, yo raviyda yoki har ikkalasida mos kelishidan iborat lafziy san’at. N. qo‘llagan she’riy san’atlardan biri. U gapga ravonlik, ohangdorlik bag‘ishlab, tasvirning ta’sir kuchini oshiradi, uning o‘quvchi (yoki tinglovchi) yodida qolishini osonlashtiradi. Shuning u-n ko‘pchilik nasrdagi S.ni nazmdagi qofiyaga o‘xshatadi. “Tizimda qofiya nima esa, sochimda saj’ shudir, – deb yozadi bu haqda Fitrat. – Bir maqola, bir hikoyada gaplarning oxirlaridag‘i so‘zlarning bir turli ohangda bo‘lishlaridir”. S. san’ati qo‘llanilgan nasrni nasri musajja’, she’rni nazmi musajja’ deb yuritadilar. Matnga ravonlik va ohangdorlik bag‘ishlashi jihatidan nafaqat adabiy, balki

ilmiy, tarixiy, didaktik asarlar, hatto o‘zaro yozishmalarda ham S. qo‘llanilgan.

S. san’atini uch turga ajratadilar:

1. S.i mutavoziy (to‘liq S.) da so‘zlarning vaznda ham, raviyda ham bir-biriga mos kelishi talab qilinadi. M-n: “Har sohibdavlatka bu ogohlig‘ bir vasila bila etibdur va har saodatmand bu iqbolni bir vosita bila kasb yetibdur”.

2. S.i mutarraf (qofiyali S.)da so‘zlar raviyda o‘zaro mos bo‘lsa ham, hamvazn bo‘lmaydi. M-n: “Dehqonki, dona sochar, yerni yormoq bila rizq yo‘lin ochar”.

3. S.i mutavozin (vazndosh S.)da so‘zlar vazndosh bo‘ladi-yu, mos tushmaydi. M-n: “Fosiq olim donishvaredir o‘z nafsiga zolim, g‘aniyga baxil nodondur o‘z ziyonig‘a muxil”.

N. o‘z ijodida S. san’atidan “ko‘p va xo‘p” foydalangan. Xususan, “M.Q.”ning pandnomasida undan haddi a’losida foydalangan, to‘g‘rirog‘i, uni S.da yozgan deyish ham mumkin. Shuningdek, u devonlariga yozgan debochalarida, “X.” dostonlari fasllarining nasriy sarlavhalarida, “M.N.”, “M.L.”, “M.A.”, “V.”, “Munj.” asarlarida ham S.dan unumli foydalangan.

S. aslida nasrga xos bo‘lib, nazmda bu vazifani qofiya bajaradi. Lekin ba’zilar she’rdagi ichki qofiyani ham S. hisoblab, bunday she’rlarni nazmi musajja’ deb yuritadilar. Adabiyotshunos B.Sarimsoqov “O‘zbek adabiyotida saj” nomli monografiya yozgan. Unda N. qo‘llagan sajlarni ham tahlilga tortgan.

Ad.: *Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға // “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2002, № 6; Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъ ус-санойиъ (А. Рустамов тарж.). – Т., 1984; Фитрат. Адабиёт қоидалари // Танланган асарлар. 4-жилд. – Т., 2006; Исъҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т., 2006; Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Т., 1983; Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Т., 2001; Ҳожиаҳмедов А. Шеър санъатларини биласизми? – Т., 2001; Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2010.*

E.O.

SAID Muhammad Olim Labib (Afg‘oniston, Foryob; 1957) – shoir, adabiyotshunos olim, prof. Kobul universiteti fors tili va adabiyoti bo‘limida, so‘ng Rossiyada tahsil olgan. “Mirzo Niyoziy Balxiy va uning XIX asr Afg‘onistondagi o‘zbek va tojik adabiyoti taraqqiyotidagi roli” (Dushanbe, 2018) mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Kobul, Mozori Sharif universitetlarida tashkil etilgan O‘zbek tili va adabiyoti bo‘limlari asoschisi. Kobul (1984–1992), Balx (1993–2003), Foryob (2003–2006) universitetlari prof.i, Tahor universiteti (2006–2008) rektori vazifasida ishlagan. 2014-y.dan Turkiya Anqara universiteti “Zamonaviy turk lahjalari va adabiyotlari” bo‘limida faoliyat yuritib kelmoqda. “Tazkirayi Muqimxoniy”, Xorazmiyning “Muhabbatnoma”si va “Mavlono Lutfiy devoni” asarlari tanqidiy matnini tayyorlab, nashr qilgan. Olim Labib Afg‘onistondagi n.shunos olimlardan biri. Uning N. ijodiga doir ko‘plab ilmiy tadqiqotlari e’lon qilingan. Aruzda mumtoz an’anani davom ettirib, N.ning o‘nlab g‘azallariga muxammas va naziralar bitgan. Arab alifbosida “Navoiy va Labib” nomli nazira va muxammaslari nashr etilgan (2022).

Ad.: *Азизуллаҳ Арал. Навоий ўзига қўйган ҳайкални бузиб бўлмас ёхуд Афғонистондаги навоийшунослик тарихи // “Марказий Осиё ренессанси” журнали. – Т., 2023; Муҳаммад Олим Лабиб. Навоий ва Лабиб. Назира ғазаллар ва Алишер Навоий ғазалларига боғланган мухаммаслар. – Анқара, 2022.*

S.O‘.

SAID QOSIM ANVOR – Amir Muiniddin Ali S.Q.A. hijriy IX asrda yashagan so‘fiy shoirlardan hisoblanadi. Abdurahmon Jomiyning yozishicha, S.Q.A. Shayx Sadriddin Ardabiliy, Shayx Sadriddin Ali Yamaniylar qo‘lida tarbiya topgan. U asli tabrizlik bo‘lib, Rum, Nishopur, Balx, Samarqand shaharlarida safarda bo‘lgan, Hirotda muqim yashab, 437-y. shahar yaqinidagi Xarjurdda vafot etgan. Uning mehri va tarbiyasidan fayz topgan Xo‘ja Ahror Valiy “Qachonki Said Qosim huzuriga borsam, ko‘zimga butun koinot uning atrofiga jamlanib, unga singib, nopaydo bo‘lgandek tuyuladi” deb yozib qoldirgan.

S.Q.A. ko‘plab axloqiy-ta’limiy, islomiy-ma’rifiy, tasavvufiy falsafiy she’rlar bitgan, maxsus she’rlar devonini tuzgan, ilmiy risolalar insho etgan. Devonida turli janrlardagi asarlar, masnaviysi jamlangan. “N.M.”da N. bu xususda shunday yozgan: “Holo el arosida devonlari bor va yaxshi masnaviy risolalari va yana rasoyil ham bitibdurlar va tarje’lari devonda bor”. S.Q.A. o‘zidan keyingi tasavvuf ilmiga katta ta’sir o‘tkazgan allomayi zamondir.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

H.H.

SAYYID AHMAD (XV asr) − shoir. Amir Temurning nabirasi, Mironshohning o‘g‘li. S.A. “Taashshuqnoma” (“Oshiqlik maktubi”) asari b-n o‘zbek mumtoz adabiyotida o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Xorazmiyning “Muhabbatnoma”, Xo‘jandiyning “Latofatnoma” asarlariga ergashib yozilgan ushbu masnaviy muallifining she’riy salohiyati baland bo‘lganligidan dalolat beradi. Shoirning hayoti va ijodi haqida yetarli ma’lumotlar saqlanib qolmagan. Maishatga berilib, davlat tizginini qo‘ldan chiqargani u-n Amir Temur saltanatining g‘arbiy sarhadlari (Xuroson, Eron, Iroq va Eron Ozarbayjoni) hukmdori bo‘lgan otasi Mironshoh (1366–1408) hokimiyatdan chetlatilgan, buning ustiga, yosh o‘lib ketganidan keyin uning oilasi e’tibordan chetda qolgan ko‘rinadi. S.A.ning boshqa temuriyzodalar kabi harbiy tarbiya olmagani va biror mulkni boshqarish ishiga jalb etilmagani ham shundan dalolat beradi. Ehtimol, hayotligida Mironshohning bolalari yosh bo‘lishgan-u, sohibqiron vafotidan so‘ng boshlanib ketgan toj-taxt kurashlariga tortilgan temuriyzodalar uning xonadonini unutib qo‘yishgandir. Nima bo‘lganda ham, faqirlikda yashagan S.A. shoirlik b-n shug‘ullanadi.

N.ning “M.N.” tazkirasida ma’lumot berishicha, u “salimtab’ va pokzehn kishi erdi. Xele mashhur nazmlari bor. Ham g‘azal, ham masnaviy, ham turkiy, ham forsiy g‘azal tavrida devoni bor. Va masnaviy tavrida “Latofatnoma” (Navoiy bu yerda yanglishgan, “Latofatnoma” Xo‘jandiy qalamiga mansub. − E.O.) aningdur. Bu turkcha matla’si yaxshi voqe’ bo‘lubturkim:

Sayd etti firoqing meni murg‘i saharidek,
Qil odamilik, qilma nihon yuzni paridek.

Bu forsiy matla’ ham aningdurkim:

Maham gar pesh az in pinhon bimonad,
Ajab, agar bedilonro jon bimonad”.

Tarj.: Agarda oy yuzli sevgilim bundan keyin ham pinhon qoladigan bo‘lsa, oshiqlarning omon qolishi ajablanarlidir.

Shoirning devoni bizga qadar yetib kelmagan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

E.O.

SAYYID ALI HOSHIMIY (XV asr) – shoir. Mirzo Ulug‘bekning o‘g‘li Abdullatif mirzoning mulozimi bo‘lgan. Sipohiylik ham qilgan. N. “M.N.”da uni oliynasab va xushta’b yigit sifatida ta’riflaydi va uning sho‘x ta’bidan namuna sifatida quyidagi baytini keltiradi:

Dar biyoboni adam budam ba fikri on dahan,
Shud padid on xatti sabz-u gasht Xizri rohi man.

Tarj.: Ul og‘iz xayolida yo‘qlik biyobonida sarson kezar edim, kutilmaganda ul sabzxat paydo bo‘ldi-yu, Xizr kabi menga yo‘l ko‘rsatdi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988.*

E.O.

SAYYID G‘IYOS (XVI asr) – Hirotning dongdor bog‘bonlaridan. Tarroh ham bo‘lgan. Asl oti Sulton Mahmud. Kelib chiqishi sayyidlardan. Mashhur “Jahonoro” (q.) bog‘ining tarhini S.G‘. tuzgan. S.G‘. faqat bog‘bonlik, bog‘lar yaratish bilangina emas, turli imoratlar, sug‘orish inshootlari qurilishi b-n ham shug‘ullangan va tarhlar chizgan. Nisoriy bu haqda shunday ma’lumot beradi: “Hech bir imorat qurilishida hech kimsa Mirak (Nisoriy uni Mirak Sayyid G‘iyos deb ataydi) xabarisiz bironta g‘ishtini yerga qo‘ymagan va uning bog‘lar, yer osti suv inshootlari va ekin dalalar joylashish tartiblari bo‘yicha ishlab chiqqan tarhlari juda ko‘pdir”.

N. “Xam.M.”da S.G‘. b-n bog‘liq bir hikoyatni keltirgan.

Jomiy, N. va boshqa aziz kishilar Gozurgohdan dasht yo‘li b-n Xiyobon taraf ketayotganlarida yo‘lda aravalarga sarv nihollari ortgan S.G‘.ni uchratadilar. Jomiy hazil qilib, yana sarv daraxti qoldimi, nega muncha yuklabsan, nechta ekan? – deb so‘raydi. S.G‘. – sanaganmiz. 104 adad, – deb javob beradi. Jomiy – ajab adaddur, deydi. Shunda N. – munosib adaddur, “qad” so‘zining adadi bilan munosibdur” deydi (abjad hisobi b-n “Qad” so‘zidan 104 raqami chiqadi). Jomiy N.ni tahsin qiladi. Chunki shu fikr undan ham o‘tgan edi. Shayboniylar Xurosonni olgandan so‘ng, S.G‘. Buxoroga kelgan va Ubaydullaxon xizmatida bo‘lgan. U mazkur xon u-n nihoyatda go‘zal bir bog‘ yaratgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамсат ул-мутаҳаййирин. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011.*

S.G‘.

SAYYID BADR (Mir Badr) – Sulton Husayn mirzoning saroy a’yonlaridan. Uning saroydagi faoliyati, asosan, nadimlikdan, ya’ni shoh b-n doimiy hamsuhbat bo‘lib, uni zeriktirmaslik, shohning ko‘ngil yozishi b-n bog‘liq tadbirlarda ishtirok etishdan iborat bo‘lgan. Manbalarda S.B.ning siyosiy-harbiy yoki boshqa davlat ishlari b-n shug‘ullangani haqida ma’lumotlar yo‘q, uning nomi faqat saroydagi bazmlar, tomoshalar munosabati b-n tilga olinadi. Jumladan, 1495-y. da Hindistondan Sulton Husayn mirzoga sovg‘a sifatida bir fil yuborilgan va saroyda ushbu fil b-n Pahlavon Moloniy o‘rtasida jang tomoshasi uyushtirilgan. Vosifiy S.B.ning shu tadbirda ishtirok etganini qayd qilgan. S.B.ning tabiati ham nadimlikka mos bo‘lib, u xushchaqchaq, topqir va chaqqon, buning ustiga moxir raqqos bo‘lgan. “Boburnoma”dan ma’lum bo‘lishicha, S.B. o‘zining shunday faoliyatini Husayn Boyqaro vafotidan so‘ng uning o‘g‘li Muzaffar mirzo saroyida davom ettirgan. Muzaffar mirzo Bobur sharafiga ziyofat berganda S.B. ishtirok etgan va raqsga tushgan (1506).

S.B. nomi N.ning “M.” asarida uchraydi.

O‘zining bir maktubi tarkibidagi she’rda N. bir qator a’yonlar va beklarni tilga olgan, jumladan, S.B. haqida ushbu baytni bitgan:

Shah qoshida aziz-u sohib qadr,
Nuri ayni zamona Sayyid Badr.

Ad.: *Зайниддин Восифий. Бадоеъ ул-вақоеъ. – Т., 1979; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 2002.*

Q.E.

SAYYID KAMOL KACHKUL (XV asr) – balxlik shoir. N. “M.N.”da S.K.K. haqidagi ma’lumotni uning ko‘p sayohat qilgan kishi ekanligidan boshlaydi. S.K.K.ning 500 ming bayti

bo‘lib, bir qasidasidan 12 ming bayt masnu’ (q.) chiqarish mumkin ekan. N. Xoja Abu Nasr Porso (q.) vafotiga yozgan S.K.K.ning marsiyasini o‘zi ko‘rib, uning bir necha bayti misralaridan Xoja vafoti ta’rixi, bir necha bayti alohida ta’rixlarga to‘la va yana necha baytidan uch-to‘rt ta’rix chiqar, ammo mazmuniga futur yetmas edi, – deb e’tirof etadi. Bunday yuksak san’at inson qo‘lidan kelishiga hayratlangan zamondoshlari uni “Atoridni istixroj qilibdur” (Ya’ni, Atorid – Merkuriy sayyorasini bu yaratgan) deb ta’rif qilar ekanlar. Atorid shoir, yozuvchilar homiysi hisoblangani nazarga olinsa, bu ta’rif zimnida S.K.K. iste’dodiga yuksak baho mavjud.

“M.N.” tarjimoni Qazviniy N. taajjubini tarjima qilar ekan, N.ning vafoti munosabati b-n Sohib Doro marsiya yozgani va bu marsiyaning har baytidagi birinchi misradan N. tavalludi, ikkinchi misradan vafoti ta’rixi chiqishini ilova qiladi va marsiyaning birinchi bandini keltiradi.

N. S.K.ning yoshi 90 dan oshdi deb yozadi, Qazviniy esa S.K.K. 99 yil yashadi, deb aniqlik kiritadi.

S.K.K. qabri Balxda, Amir Surx mozorida ekan.

Ey ravshani az nuri ruxat didayi jonro,
Bar xok nishonda qadi tu sarvi ravonro.

Tarj.: Ey, jon ko‘zining ravshanligi yuzing nuridandir, qadding esa sarvi ravonni ham tuproqqa o‘tqazib qo‘ydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

S.G‘., E.O.

SAYYID MAHMUD VALADI MUHAMMAD TURDI SAYYID XORAZMIY – Xorazm xattotlik maktabi vakili. Nasx, suls va nasta’liq xatlarida yozgan. “X.”ni 1247–52/1832–37-yy. davomida Xivada kitobat qilgan: O‘zR FAShI. Inv. № 17. 356 varaq, chiroyli Xorazm nasta’liq xatida yozilgan.

Ad.: *Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. – Т., 1991; Собрание восточных рукописей академии наук Узбекистан. VII. – Т., 1964.*

Muh.A.

SAYYID QUROZA (XV asr, Sheroz – Samarqand) – sherozlik shoir. Tahsil u-n Hirotga kelganida, N. “M.N.”da yozishicha, juda kichik jussa, yosh bo‘lgani va bechora tuyilganidan uni mo‘tabar odamlar qo‘lida o‘qishga tavsiya etadi. N. S.Q.ga hamisha shafqat va mehribonlik qiladi. Lekin bir oz vaqt o‘tishi b-n u turli hunarlar chiqara boshlaydi. N. avvaliga eshitib-eshitmasga, ko‘rib-ko‘rmasga soladi. Oxir ish shu darajaga yetadiki, shaharda qola olmay, Samarqandga ketadi. Lekin Samarqandda ham ichkilikka berilganlar b-n g‘avg‘o qilib, turli muhokamalarga sabab bo‘ladi. N. S.Q. haqidagi ma’lumotni “Aning ishlari andin mashhurroqdurkim, sharh qilurg‘a hojat bo‘lg‘ay. Bu matla’ ul badbaxtqinaningdur”, – deb yakunlaydi. Ko‘rinadiki, N. bu shoirning o‘qib-ulg‘ayishi yo‘lida ancha aziyat chekkan. N. so‘zining yakunida uning ijodidan namuna sifatida bir matla’ keltiradi:

Digar on fasl shud, k-az lola shami bazm girad,
Guli ra’no sharobi la’lgun dar jomi zar girad.

Tarj.: Yana loladan bazm shami porlaydigan fasl keldi. Ra’no guli zarrin jomda la’l tusli sharobni qo‘liga oladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

S.G‘., E.O.

SAYYID QUTB LAKADANG (XV asr, Samarqand) – N.ga zamondosh shoirlardan. N. “M.N.”da uni Sayyid Qurozaga badfe’llik va ko‘rnamaklikda o‘xshash, hatto undan ham o‘tib tushadi, deydi. Hirotga borib yashaydi. Bir gunohi u-n o‘limga hukm qilinadi. Ming bir mashaqqat b-n o‘lim jazosini qamoq b-n almashtiradilar.

Zindondan qochib, yana Samarqandga keladi. Bu yerda Sayyid Quroza b-n goh talashib, goh yarashib yashaydi. Ko‘proq muammo yozishga mayl ko‘rsatgan. Shuhrat tutgan muammolaridan biri “Farid” ismiga yozilgan:

Xoliqam vohid bud, Allohu akbar,
Z-on marid ahval omad, ko‘r-u kar.

Tarj.: Parvardigor yakka-yu yagonadir, Allohu akbar, shundan qaysar g‘ilayu ko‘ru kar keldi.

Uning barcha salohiyatini shu birgina muammosidan bilsa bo‘ladi, – deydi N.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

E.O.

SAYYID G‘IYOSUDDIN – N. davri fozillaridan. “M.N.” tazkirasida keltirilishicha, Mashhad sayyidlari, balki ulug‘laridan bo‘lib, munosib va muloyim yigit edi. Tabiati hazil-mazax va mutoyibaga moyil bo‘lgan. Nasabi ulug‘ligidan beixtiyor kibr-u g‘urur paydo qilgan. Sariq yuzli bo‘lganligidan uni “Sayyid shirg‘a” (“so‘lg‘in”) ham deganlar. Ba’zilar maymunga ham o‘xshatganlar. Men uni mazax qilishga botinolmayman, deydi N., lekin uning ulovini ustiga maymun chiqib olgan itga o‘xshatganman. Ko‘ngliga olsa ham, hazilga yo‘yib sezdirmaydi. Shunday deb, uning ijodiga mansub bir matla’ni keltiradi:

Dame az dasti duni vo narastam,
Biyo, soqiy, ki yak dam mayparastam.

Tarj.: Bu tuban dunyo dastidan bir nafas ham qutulmadim. Kel, ey soqiy, bir nafas men ham mayparastman endi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

M.A.

SAYYID HASAN ABIVARDIY – “M.N.”-ning to‘rtinchi majlisida zikr etilgan shoirlardan biri. Abivard viloyatidan o‘qish u-n Hirotga kelgan. Kichik mirzo b-n hajga borgan. Iroq, Rum, Misr va Halabda yashagan va olti-yetti yildan keyin Xurosonga qaytgan. N. uni o‘jar kishi sifatida ta’riflaydi va bir bayt xususida Xuroson adiblari b-n bahslashgani hamda ularning fikrini inobatga olmay, o‘sha baytni Iroqqa Sulton Ya’qub o‘rdasiga yuborganini yozadi. Afsuski, N. bahsning mohiyati, S.H.A.ga bildirilgan e’tirozlar to‘g‘risida batafsil to‘xtalmaydi va “vuquf ahli bu baytning ma’nisi yo‘qtur, nomavzundur deganda, emasdur, deb bahs qildi” degan so‘zlar b-n cheklanadi. Baytning birinchi misrasida murojaat qilinayotgan shaxsning go‘zalligi ta’kidlanadi: Ey, zi mehri orazat gardun g‘ulom (yuzing quyoshigga dunyo quldir). Go‘zalllik esa, an’anaga ko‘ra, Yusuf ismi b-n bog‘lanadi. Lekin bu o‘rinda murojaat qilinayotgan shaxsning ismi Yusuf emas, Ya’qub. Shuning u-n shoir “Yusufero kardaand Ya’qub nom” (Yusufning otini Ya’qub qilibdilar), deya lutf qiladi. She’r Iroq podshohi Sulton Ya’qubga bag‘ishlangan. Ko‘rinadiki, S.H.A.ning baytini butunlay ma’nisiz deb ham bo‘lmaydi.

N.ning S.H.A. zikrida bitgan so‘zlari mazkur ijodkor haqida ma’lumot berishdan tashqari o‘sha davrdagi adabiy bahslar haqida tasavvur berishi, shoirlarning bir-birlarining ijodlariga befarq bo‘lmaganligini ko‘rsatishi b-n ham ahamiyatlidir.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

Q.E.

SAYYID HASAN ARDASHER (1415/16–1488/89, Hirot) − zullisonayn shoir, olim, so‘fiy, donishmand. N. u-n do‘st, ustoz, pir, ma’naviy ota maqomidagi ulug‘ inson bo‘lgan. “Sayyid Hasan Ardasher bu faqirg‘a ota masobasida erdi”, – deydi N.ning o‘zi “M.N.”da. O‘z navbatida, S.H.A. ham Alisherni farzand o‘rnida

ko‘rgan. N. “Soqiynoma”sida bu haqda shunday yozadi:

Manga zohirda atovu ustod,
Lek ma’ni aro piri irshod.

Men aning bandalig‘ig‘a xursand,
Ul debon lek rafiq-u farzand.

S.H.A.ning otasi Ardasher Shohruxning o‘g‘li Boysung‘ur saroyida qushchilik b-n shug‘ullangan. Bu hunarda mohirligi tufayli saroyda obro‘ qozonib, qushbegilik lavozimiga ko‘tariladi.

S.H.A. saroyda tarbiyalanib, yoshligidan favqulodda qobiliyati va o‘tkir zehni b-n ajralib turardi. Arab, fors tillari va adabiyoti, fiqh, hadis, kalom, tarix, mantiq, tafsir, she’r, muammo, musiqa, nujum ilmlarini yaxshi o‘zlashtirgan bo‘lsada, g‘oyati kamtarligidan davralarda o‘zini ko‘rsatishga intilmagan. Boysung‘ur mirzo uning xulq-u odobini bolalariga ibrat qilib ko‘rsatar, “Na bo‘lg‘ay sening af’ol va xisoling faloniyga o‘xshasa erdi!”, – der ekan.

S.H.A. qo‘shinda oddiy sipohiy bo‘lib xizmat qilgan. Sulton Muhammad mirzo, Sulton Alouddavla mirzo va Bobur mirzolar S.H.A.ni o‘z suhbatdoshlari safiga qo‘shish u-n saroylariga taklif qilishgan, lekin tabiati darveshlikka moyil bo‘lgani u-n saroy mulozamatini u xohlamagan. Shahzodalarning taklifi tazyiqqa aylana borgach, o‘zini rindlar davrasiga urib, devonalikka solgan, mayxo‘rlik qilgan.

N. 1455–1456-yy.da – 14-15 yoshlarida birinchi marta S.H.A. b-n ko‘rishib tanishadi va bir umrga unga bog‘lanib qoladi. S.H.A.ning oqko‘ngilligi, samimiyligi, dilkash va xushta’bligi, xushmuomalaligi, xususan, darveshona fe’l-atvori N.ni shunchalik maftun etadiki, bir kun ko‘rmasa, suhbatini olmasa turolmaydigan darajaga keladi: “Alar tariq va ravishi bu faqirni andoq shefta qildikim, bir kun alar mulozamatig‘a etmasam erdi, sabr-u toqatim qolmas erdi”, – deb yozadi uning o‘zi bu haqda “H.S.H.A.” manoqibida. Xuddi shu hol S.H.A.da yuz berib, tez-tez kelib, N.dan xabar olib turar, bir kun ko‘rmasa, “tashvishe bo‘lmamish bo‘lg‘aykim, bu kun sendin xabar topa olmaduq”, – der ekan.

S.H.A. N.ni tariqatga – faqr yo‘liga va turkiyda she’r aytishga muttasil da’vat qilib turgan. Uning aksar she’rlarini yod olib, el orasida targ‘ib etgan. Bu paytda N. Xurosonda zullisonayn shoir sifatida tanilib ulgurgan edi.

Bu ikki zotning tab’i muvofiq, adabiy-estetik qarashlari mushtarak, zavq-u hollari o‘zaro mosligidan yaqinlik rishtasi tobora mustahkamlanib borar edi. Jumladan, S.H.A. forsigo‘y shoirlardan Sa’diy va Hofiz, turkigo‘ylardan Atoiy, Gadoiy, Lutfiylarni musallam tutsa, N. ham ular ijodini yuksak baholagan. Ustozining Lutfiy va Muqimiyning mahoratiga misol qilib keltirgan baytlarini N. ham “M.N.”da keltiradi.

S.H.A.ning teran aql-u zakovati va go‘zal xulq-u shirin suhbati Husayn Boyqaroga ma’qul kelib, uni qo‘ldan chiqarmaslikka harakat qiladi va saroyda mustashor-maslahatchi qilib tayinlaydi. U bu lavozimda faoliyat ko‘rsatar ekan, shoh-u a’yonlar ham, xalq ham undan rozi va minnatdor bo‘ladi. Sulton unga qattiq e’tiqod qo‘yib, hatto bosh vazir qilib, butun davlat ishlarini uning qo‘liga topshirmoqchi bo‘ladi. Lekin u nafaqat bu taklifni qabul qilmaydi, balki maslahatchilikdan ham ozod etishini so‘raydi. Hukmdorning xotiri u-n ikki yil eski kasbi − sipohiylik b-n shug‘ullanib, keyin saroyni butunlay tark etadi. Hirotning mashhur shayxi Mavlono Muhammad Tabodgoniy muridlari safiga qo‘shilib, tariqat sulukini ado etadi. Bir necha marta chilla o‘tirib, ruhiy-ma’naviy kamolot kasb etadi. N. shayx xonaqohiga borib, ustozidan xabar olib turadi. Hovlisining bir chetida unga atab xona qurib qo‘yadi – ustozi istagan paytida bu yerga kelib hordiq chiqargan.

S.H.A. vafot etgan kuni N. Hirotda emas edi. Bundan xabar topib, behad o‘kinadi. Hirotning shimoliy qismida − tog‘ etagida bir maqbara yasab, ustozi xokini o‘sha yerga ko‘chiradi. S.H.A. ga yaqin, lekin qabri har yerda bo‘lgan qolgan aziz zotlarning ham xokini shu yerga keltirib

ko‘mdiradi. Natijada, bu joy “Azizlar xazirasi” deb atalib, shu nom b-n mashhur bo‘ladi.

S.H.A. N. hayotida qanday mavqega egaligini yosh shoirning 27 yoshida Samarqanddan unga yo‘llangan she’riy maktubi – “Masnaviy” yaqqol ko‘rsatadi. Maktubdan S.H.A. N. ishonadigan va suyanadigan, o‘zini tushunadigan va qo‘llab-quvvatlaydigan, hamdard va hammaslak birdan-bir inson ekanligi anglashiladi. Unda ustozini fazilat osmonining quyoshi, vafo va saxovat koni, deb ulug‘laydi. Xulqing jannatdan ziyoda, bu zamonda dard ahli holini aytishi mumkin bo‘lgan yagona kishisan, deb ta’riflaydi. O‘zining unga shogird-u farzand qatorida ekanligini e’tirof etadi.

“M.N.” tazkirasida esa o‘zbek-u tojik orasida undan komilroq kishi yo‘q deydi. Dunyoviy ilmlarni egallagan bo‘lsa-da, tasavvufga mayli kuchliligini aytadi. Har ikki tilda mahorat b-n qalam tebratgani haqida ma’lumot berib, misol tariqasida forsiy bir qit’asi va turkiy baytini keltiradi. Uyi rind-u xarobotiylarning yig‘iladigan joyi bo‘lib, ushbu qit’ani ular davrasida ilhom b-n badehatan aytgan:

Chi xush boshad sabuhi bo dilorom,
Labolab az qadah har dam kashidan.

Chu g‘uncha har du dar yak pirahani tang
Baham pechidan-u darham kashidan.

Tarj.: Bu dunyoda bir dilorom bilan tongda har dam limmo-lim qadah ichishdan-u g‘uncha kabi ikki tan tor bir ko‘ylak ichida chirmashib quchishmoqdan yoqimliroq nima bor?

Quyidagi baytni esa taqvo va zuhd chog‘ida aytgan:

Ilohiy, nuri irfondin ko‘ngulga bir safo bergil –
Ki, isyon zulmati ichra xarob ahvolu hayrondir.

Ustozining vafotiga bag‘ishlab:

Dahr bog‘iki, jafo shore’idur har chamani,
Juz vafo ahlig‘a sonchilmadi oning tikani, –

bayti b-n boshlanuvchi 7 bandlik tarkibband − marsiya yozib, o‘zining chuqur qayg‘usini izhor etgan. Uni ma’rifat dengizining gavhari, sirlar kashshofi, faqr yo‘li rahbari, fano ahli sarvari, himmat ahli murshidi, zamonning yagonasi kabi sifatlar b-n ulug‘lab, o‘ziga bir necha rishtalar b-n bog‘langanini shunday ifodalaydi:

Meni motamzadag‘a ham ota, ham murshid-u pir,
Balki ham g‘amxo‘r-u ham yovar-u yor qani?

Tirikligida boshiga har xil savdolar tushganida, o‘zi qo‘llab-quvvatlagani kabi o‘lganidan keyin ruhi og‘ir damlarida madadkor bo‘lishidan umid qiladi:

Bor umidimki, madad ruhung ila qilg‘aysen,
Har qachon ollima davron aro shiddat bo‘lg‘ay.

“Soqiynoma”sining XXVI bobini ham S.H-.A.ga bag‘ishlab, uning o‘ziga qanchalik yaqinligi va tasavvufdagi maqomi xususida fikr yuritadi:

Foniyi mutlaq, ozoda ham ul,
Pariro‘, soliki aftoda ham ul.

Yo‘q fano dayrida o‘zdin xabare,
Qolmayin o‘zlukidin ham asare.

“H.S.H.A.” manoqibi b-n ustoziga o‘lmas adabiy haykal qo‘ydi. Asarda uning butun hayoti, faoliyati va ma’naviy olamining asosiy nuqtalarini mo‘jaz shaklda yoritadi. Nuktadonligi, nozikta’bligi, darveshtabiatligi b-n bog‘liq ibratli lavhalarni keltirib o‘tadi. Uni asl gavhar, ma’nolar orifi, foniylik maqomiga etgan solik, deb ta’rif-tavsif etadi. “N.M.”da S.H.A.ni komil inson sifatida mashhur shayx-u avliyolar qatorida zikr etishi esa N.ning ustoziga bergan eng yuksak bahosidir.

Ma’lum bo‘ladiki, S.H.A. o‘z davrining peshqadam, fozil, boshqalarga ibrat bo‘ladigan fazilatlarga ega shaxslaridan bo‘lib, N.ning ma’naviy kamoloti va ijodiy yuksalishida muhim rol o‘ynagan.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ҳолоти Саид Ҳасан Ардашер. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Султон И. Навоийнинг қалб дафтари. – Т., 1969; Ғаниева С. Саййид Ҳасан Ардашер сияр ҳолатида // Навоий насри нафосати. – Т., 2000; Комилов Н. Саййид Ҳасан Ардашер − Комил инсонми? // Тавҳид асрори. – Т., 1999; Қаюмов А. Дилкушо такрорлар ва руҳафзо ашъорлар. – Т., 2011; Абдуқодиров А. Амир Алишер Навоий. – Хўжанд, 2013.*

E.O., M.A., Z.R.

SAYYID HASAN ARDASHERGA MAKTUB – N.ning “X.M.” to‘plamidan bitta masnaviy o‘rin olgan bo‘lib, u Sayyid Hasan Ardasher nomi b-n bog‘liqdir. Masnaviy hajman 148 bayt 296 misradan iborat. U yosh shoirning safar oldidan ustozi va do‘stiga yozgan she’riy maktubidir. “G‘.S.” devoniga kiritilgan.

N. 60-yy.ning boshlarida Samarqandga yo‘l oladi. Abdurazzoq Samarqandiy, Mirxond va Xondamir shoirning Samarqandga borish sabablarini ilm o‘rganishga intilish b-n bog‘lasalar, Zahiriddin Muhammad Bobur “ixroj” (surgun) deb ataydi. Akad. Sh.Sirojiddinov bu safarning “ixroj” ya’ni surgun emasligini keyinchalik ilmiy dalillar bilan isbotlagan. N.ning o‘zi Sayyid Hasan Ardasherga yozgan “Masnaviy” maktubida Samarqandga ketishining bir nechta sabablarini ko‘rsatadi:

Bir ulkim, chu so‘zdindir inson sharif,
Chu hayvonga so‘z yo‘qdur, uldur kasif...

Men ul menki, to turk bedodidur,
Bu til birla to nazm bunyodidur.

Falak ko‘rmadi men kibi nodire,
Nizomiy kibi nazm aro qodire...

Yetar Tengridin oncha quvvat manga,
Ki bo‘lmas bitiriga fursat manga.

Bu maydonda Firdavsiy ul gurd erur,
Ki gar kelsa Rustam javobin berur.

Raqam qildi farxunda “Shahnoma”ye
Ki, sindi javobida har xomaye.

Ki har necha nutq o‘lsa kohilsaroy,
Bitigaymen o‘ttuz yilin o‘ttuz oy.

Ne “Shahnoma”kim, “Xamsa”g‘a ursam el,
Aning panjasi sori yetkursam el.

O‘tuz yilki, oni Nizomiy demish,
Qoshimda erur ikki-uch yillik ish…

Bu o‘rinda vatandan ketish sabablaridan biri sifatida Hirotda ijod qilish u-n imkoniyat yo‘qligi keltirilmoqda. Shoir nazmda qobiliyat jihatidan Nizomiyga tengligi, Firdavsiy va Nizomiylar 30 yil vaqt sarflab yozgan “Shohnoma” va “Panj ganj”ni 30 oyda yoza olishga o‘zida quvvat sezayotgani, lekin buning u-n imkoniyat yo‘qligini ta’kidlaydi.

Yana bir bukim, zohir o‘lmish mango,
Ki, chiqmish Xuroson elidin vafo...

Vafo yerida zohir o‘lmish nifoq,
Saxo o‘rnida buxl tutmish visoq...

Ham el manzilin shah katakdek buzub,
Tovug‘ o‘rniga chug‘z o‘lturg‘uzub.

Elida kishilikdin osor yo‘q,
Sharoratdin o‘zga padidor yo‘q...

Ne bir hujrakim, kom topqay ko‘ngul,
Dame anda orom topqay ko‘ngul.

Ne bir sho‘x vaslig‘a ul moyadast,
Ki, azmim ayog‘ig‘a bergay shikast.

Ne yoreki, ranjimni qilg‘ay qabul,
Ne zoreki, hajrimdin o‘lg‘ay malul.

Yana bir sabab: yurtdagi notinchlikdir. Odamlarda bir-biriga vafo yo‘q. Vafoning o‘rnini nifoq, saxovatning o‘rnini baxillik egallagan. Mamlakat shohi xalq uyini katakdek buzib, tovuq o‘rniga boyo‘g‘lini o‘tkazib qo‘ygan. Odamlarda odamiylikdan nishona yo‘q, hamma joyda yomonlik hukmron.

Boshqa bir sababi esa ilm egallashga bo‘lgan ehtiyojdir.

Uchinch ulki, chun Xoliqi zuljalol,
Ki, ham lamyazal keldi, ham loyazol.

Chu lavhi vujud uzra tortib qalam,
Iki kavn tarhig‘a urdi raqam...

Emas erdi maqsud juz odamiy
Ki, Haq sirrining bo‘lg‘ay ul mahrami.

Baridin g‘araz garchi inson edi,
Anga dag‘i maqsud irfon edi.

Tasavvuf ta’limotiga ko‘ra, Allohni tanishning yo‘llaridan biri. Pirga qo‘l berib, uning irodasi b-n riyozat chekishdir. Safardan yana bir murod shu:

Burun murshidi komil istay yurub,
Ani topqach o‘zin anga topshurub...

Chu avvalg‘i ish bo‘lmadi dastgir
Ikinchisidin xo‘b emastur guzir.

Umuman, “Masnaviy” – S.H.A.M. N. tarjimayi holining yoshlik davri va dunyoqarashining o‘ziga xos jihatlari haqida ma’lumot beruvchi yorqin badiiyat namunasidir.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ҳолоти Саид Ҳасан Ардашер. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий: манбаларнинг қиёсий, текстологик таҳлили. – Т., 2011; Сирожиддинов Ш., Юсупова Д., Давлатов О. Навоийшунослик. – Т., 2018; Алишер Навоий: Қомусий луғат. 1–2-жилдлар. – Т., 2016.*

M.A.

“SAYYID HASAN ARDASHERGA MARSIYA” – N.ning ustozi, sirdoshi, “ota masoba” (martaba)sidagi ulug‘ inson S.H.A. vafoti munosabati b-n yozgan har biri 8 baytli 7 band (56 bayt) dan iborat tarkibband marsiyasi (1490–91).

Ma’lumki, N.ning Sayyid Hasan haqidagi barcha asarlari samimiy ruh b-n sug‘orilgan bo‘lib, uning xoksor, faqir-u haqir, darveshtabiat inson, faqr-u fano kishisi ekanligiga urg‘u beriladi. M-n, “H.S.H.A.” asari “Soliki foniy va gavhari koniy, orifi maoniy” degan tavsif b-n boshlanadi. “S.”da esa unga shunday ta’rif beradi:

Foniyi mutlaq, ozoda ham ul,
Garmro‘, soliki aftoda ham ul.

Marsiyada ham ayni shu holni ko‘ramiz. Dunyo bog‘ining jafosi xususida fikr yuritilgan ilk bandniyoq shunday ta’rif b-n yakunlaydi:

Bahri urfon duri Sayyid Hasan ulkim, aflok
Yetti durji aro bir ko‘rmadi andoq duri pok.

Ko‘hna falakning bevafoligiga bag‘ishlangan 2-band bu pok insonning foniy bo‘lib, Haqqo vosil bo‘lgani-yu ko‘ngliga begona xayolini yovutmaganligi haqidagi bayt b-n xotimalanadi:

Xossa ul foniyi davronki, bo‘lub vosili Haq,
Qo‘ymadi ko‘ngli aro g‘ayr xayolin mutlaq.

3-band Ardasherning fano olamidan hammani musibatga qo‘yib, baqo olamiga ko‘chgani, bundan barcha faqr ahli aza tutgan bo‘lsa-da, N.ning boshiga o‘zgacha motam – og‘ir qayg‘u tushgani haqida. Chunki u bu samimiy insonga har tomonlama bog‘lanib qolgan edi.

4-bandda Ardasherning tasavvufdagi maqomlari-yu tariqatdagi darajalari birma-bir sanab ko‘rsatiladi: “soliki atvor” (go‘zal xulqli solik), “koshifi asror” (sirlarni kashf etuvchi), “ogoh-u xabardor”, “hodiyi ahli fano” (fano ahlining rahnamosi), “murshidi ahror” (yaxshi kishilar piri) va h.k. Ayni paytda o‘zining unga nisbatiga oydinlik kiritib ketadi.

5-bandda ustozining jannat farog‘atiga yetishib, kavsar sharobidan serob-u malaklar b-n musohib bo‘lgani haqida so‘zlar ekan, hayotligida o‘zi hamisha qo‘llab kelganidek, endi ruhi madadkor bo‘lishidan umidvorlik qiladi:

Bor umidimki, madad ruhung ila qilg‘aysen,
Har qachon ollima davron aro shiddat bo‘lg‘ay.

“H.S.H.A.”dan ma’lum bo‘lishicha, ustozining bemor bo‘lib yotib qolgani-yu vafot etganida N. shaharda bo‘lmay, podshoh topshirig‘i b-n uzoqqa ketgan edi. Shuning u-n ham u 6-bandda hasrat-u armon b-n falak pand berib, xastaligida g‘amxo‘rlik qilolmagani, jonini qo‘shib sharbat-u taom tutolmagani, farzandlik burchini ado etib, mehri b-n boshida o‘tirolmagani haqida oh-u fig‘on o‘tida o‘rtanib, hassos misralar tizadi.

7-bandda dunyoning o‘tkinchiligi, umrning g‘animatligi, husnning bevafoligi haqidagi falsafiy mulohazalar dunyoga etak silkish-u Haqqa bandalik qilish kerakligi xususidagi pand-u nasihatlar b-n bog‘lanib ketadi:

Har kishi komil erur, bas anga Haq bandalig‘i,
Mundin o‘zga tama’yi kasbi kamol aylamangiz.

Marsiya eng yaqin kishisidan judo bo‘lgan kishining dard-u alam to‘la qalb tug‘yonlari bo‘libgina qolmay, undan hayotning issiq-sovug‘ini ko‘rgan, achchiq-chuchugini totgan donishmand insonning hayot mohiyati va inson umrining mazmuni b-n bog‘liq hikmat darajasidagi chuqur falsafiy mulohazalari ham o‘rin olgan. Hassos kechinmalar va teran fikrlar esa san’atkorona mahorat b-n misralarga tizilib, tarkibbandning badiiy yuksakligini ta’minlagan. Ayni jihatdan mazkur marsiya ham N.ning badiiy barkamol asarlaridan biri hisoblanadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ҳолоти Сайид Ҳасан Ардашер. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Комилов Н. Сайид Ҳасан Ардашер – комил инсонми? // Тавҳид асрори. – Т., 1999.*

E.O.

SAYYID HASAN O‘G‘LOQCHI (t.y.n. – 1514-y., G‘ijduvon) – Sulton Husayn Boyqaroning beklaridan. N. b-n bir davrda saroyda xizmat qilgan. Asli kelib chiqishi turklashgan mo‘g‘ullardan. Otasi Sayyid o‘g‘loqchi Ulug‘bek mirzo hukmronligi davrida uning e’tiborini qozongan. S.H.O‘. ilmli va iqtidorli kishi bo‘lgan, xususan, astronomiya bo‘yicha yaxshi bilimga ega bo‘lgan. She’r ham yozgan. N. S.H.O‘.ni yaxshi bilgan. Lekin S.H.O‘. N. asarlarida tilga olinmagan, jumladan, “M.N.” da ham zikr etilmaganki, bu taajjublanarli holdir.

Xuroson Shayboniyxon tomonidan istilo qilinib, Husayn Boyqarodan qolgan saltanat yo‘q bo‘lgandan so‘ng, S.H.O‘. 1512-y.gacha nima ish qilganligi ma’lum emas. Shu yili u Bobur huzuriga kelgan. Bobur 1514-y.da safaviylar lashkarboshisi Najm Soniy b-n ittifoqlikda shayboniylar qo‘shini b-n G‘ijduvonda urishib yengilgan. S.H.O‘. ana shu jangda o‘ldirilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 2002; Хондамир. Буюклик хислати. – Т., 2011.*

Q.E.

SAYYID HIRAVIY (XV asr) – shoir. Temuriylar davri shoirlaridan. Fozil inson va zabardast adib bo‘lib, Mavlono rutbasiga musharraf bo‘lgan. Qalandartabiat, ta’bi sho‘x va suhbati shirin kishi edi. She’riyatning turli janrlarida qalam tebratgan. N.ning “M.N.” tazkirasida ma’lumot berishicha, qoramag‘izdan kelgan, qullar toifasidan bo‘lib, quyidagi bayti go‘yo uning o‘z holiga mos:

G‘ulomi xeshtanam xond lolaruxsore,
Siyohro‘yiyi man kard oqibat kore.

Tarj.: Qora yuzliligim oqibat o‘z ishini qildi – gul yuzli go‘zal meni o‘zining qullaridan biri deb biladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 3. – Душанбе, 2004.*

E.O.

SAYFIDDIN BOXARZIY (1190, Eron – 1261, Buxoro) – ulug‘ avliyo, yetuk shoir, zabardast olim, hassos voiz. Nishopur va Hirot madrasalarida tahsil olib, fiqh, hadis, tafsir va boshqa fanlarda o‘z davrining peshqadami bo‘lgan. Makka va Madinaga safar qilgan. Keyin Najmiddin Kubroga murid tushib, kubraviya tariqatiga kirgan. “Shayx Najmiddin Kubroning xulafosidindur. Zohiriy ulum tahsili va takmilidin so‘ngra Hazrat Shayx mulozamatig‘a musharraf bo‘ldi va tarbiyat topdi”, − deydi bu haqda N. mo‘g‘ullar Xorazmga hujum qilganda, ustozining ishorati b-n Buxoroga keladi.

Kubraviya tariqatining yirik namoyondasi bo‘lgan bu zabardast tariqat piri va peshqadam alloma Movarounnahr va Xurosonning nafaqat diniy-tasavvufiy, balki ijtimoiy-siyosiy hayotida ham muhim rol o‘ynagan. Undan kubraviyaning hind tarmog‘i – firdavsiya boshlanadi.

Xalq orasida nufuzi balandligi mo‘g‘ul xonlarini ham S.B. b-n hisoblashishga majbur etgan. Munkexon, Hulaguxon va Hubilayxonlarning onasi Suyurko‘ktani beka Buxoroda madrasa va xonaqoh qurdirib, shayxni unga mutavalliy qilib tayinlagan, ko‘plab qishloqlarni unga vaqf qilgan. Chingizxonning nevarasi − Oltin O‘rda xoni Berkaxon Buxoroga kelib, unga murid tushgan, islom dinini qabul qilib, Barakaxon nomini olgan. Shu munosabat b-n unga “shayx ul-olam” − “olam shayxi” unvoni berilgan.

S.B. maqbarasi Buxoroning Fathobod mavzesida.

S.B. “Sharh ul-asmo ul-husna” (“Allohning go‘zal ismlari sharhi”), “Voqeayi xilvat” (“Xilvat voqeasi”), “Ro‘znoma” (“Kunnoma”), “Vasiyatnoma” asarlari va “Ruboiyot (“Ruboiylar”) to‘plami muallifi hisoblanadi. Unga 650 ta ruboiyni nisbat beradilar.

S.B. ruboiylari, asosan, zikr-u samo’ majlislarida badehatan aytilgan bo‘lib, barchasi tasavvufiy mazmunda: ularda Haq yo‘liga da’vat qilinadi, ilohiy ishq ulug‘lanadi, tasavvufning ba’zi g‘oya va talablari ifodalanadi, insoniy kamolot masalalaridan bahs yuritiladi, hijrondagi oshiq ko‘nglining dard-u iztiroblari, tuyg‘u-kechinmalari tasvirlanadi va h.k. Bu ruboiylar buyuk tasavvuf pirining shoirlik salohiyati va mahorati ham baland bo‘lganligidan darak beradi.

S.B. haqida S.S.Buxoriy, Q.Rajabov, E.Ochilov kabi olim va adiblar u yoki bu darajada tadqiqot ishlarini olib borganlar. Taniqli shoir T.Ahmad u haqida ballada yozgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Абдураҳмон Жомий. Нафаҳот ул-унс // Осор. Дар 8 жилд. Жилди 8. Душанбе, 1990; Ислом энциклопедияси. – Т., 2004; Бухорий С.С. Ҳазрат шайх ул-олам // Икки юз етмиш етти пир. – Бухоро, 2006; Ражабов Қ. Сайфиддин Бохарзий // ЎзМЭ. 7-жилд. – Т., 2004; Очилов Э. Олам шайхи // “Нақшбандия” журнали, 2009, 1-сон; Сайфиддин Бохарзий. Рубоийлар // Донишмандлар туҳфаси. – Т., 2009.*

E.O.

SAYFIY ARUZIY BUXORIY (taxallusi; to‘liq ismi: Mavlono Sayfiy Aruziy Buxoriy XV asrning 2-yarmi − Buxoro − 1503) – shoir, adabiyotshunos, olim. Buxoroda boshlang‘ich ma’lumot olib, keyin tahsilini kamolga yetkazish u-n Hirotga borgan. Jomiy va N. rahnamolari bo‘lgan Hirot adabiy muhitiga kirib, shuhrat qozongan. S.A.B.ning favqulodda qobiliyatini ko‘rgan N. uning tarbiyasiga alohida e’tibor bergan. Natijada, u ilmini kamolga yetkazib, o‘tkir shoir va muammonavis bo‘lib yetishadi. Lekin shuhrat yukini ko‘tarolmay, kibr-u g‘urur paydo qiladi, ichkilikka beriladi. N.ning nasihatlari ta’sirida yana yo‘lini topib, go‘zal asarlar yaratadi.

N. “M.N.”da S.A.B.ning Buxorodan Hirotga tahsil u-n kelganini, tahsil asnosida she’riyat b-n mashg‘ullik qila boshlaganini yozadi. She’ri shuhrat tutgan, ayniqsa, masal usulda yaxshi she’rlar yozgan. S.A.B. 1487-y.da Buxoroga qaytgan. S.A.B.dan uch she’riy devon, aruz, muammo va musiqa haqida uchta risola yetib kelgan. Risola “Ilm ul-aruz”, “Risolayi Sayfiy”, “Aruzi Sayfiy” nomlari b-n ham mashhur. S.A.B. devonlari g‘azal, qit’a, fardlar va muammolardan iborat. S.A.B. g‘azallari shakl jihatidan an’anaviy g‘azalchilik namunalaridan farq qilmasa ham, mazmun jihatidan boshqacha bo‘lib, aksariyatida hunar ahli – kosib, pardozchi, temirchi, tabib, bo‘yoqchi va h.k.lar ta’rif qilinadi. Keyinchalik bunday she’riyat “Shahro sho‘b” degan nom oldi. N. ham S.A.B. she’riyatining shu jihatiga urg‘u berib: “... San’at va hirfa (hunar, kasb) ahli u-n ham ko‘p latofatliq nazm qilibtur”, – deb yozadi va she’rlarini yuksak baholaydi. Ayni chog‘da. N. S.A.B.ning tabiatidagi nuqsonni ham ko‘rsatib o‘tadi: “Mavlono hushyorlig‘da base odamivan va hayo va adablig‘ yigitdur. Ammo sarxushluqda o‘zga mohiyat bo‘lur erdi”. 1490-yy.ga kelib, ya’ni, “M.N.” yaratilgan davrlarda u ichishdan tavba qilgan ekan, N. shu tavbasida mustahkam bo‘lishini umid qiladi.

S.A.B. she’riyatidan N. keltirgan lirik mazmundagi quyidagi matla’ haqiqatan ham g‘oyat yaxshi chiqqan:

Dilo, vasfi miyoni nozuki jonni man gufti,
Nako‘ rafti hadise az miyoni joni man guft.

Maz.: Ey ko‘ngil, jononim nozik belini ta’rif qilding, Yaxshi ketding (yaxshi boshlading) – jonimning nozik joyi haqida bir hadis aytib bering.

Bobur “Boburnoma”da S.A.B. g‘oyat bilimdon. Sohibi devon – devonida hunarmandlarga bag‘ishlangan she’rlari jamlangan, masalni ko‘p yozar edi, masnaviysi yo‘q, – deb yozadi va buni S.A.B.ni o‘zining bir qit’asi b-n dalillaydi. Forscha aruzi ham bor, – deydi. Bobur S.A.B. bir jihatdan kamsuxan – kerakli narsalarni yozmaydi, ayni paytda ko‘p so‘z ko‘rinib, anglashilib turgan kalimalarga nuqta-yu i’robi (harakat belgilari)gacha qo‘yib chiqardi. Chog‘ir (may)ni ko‘p ichar, musht zarbi kuchli edi, – kabi ma’lumotlarni ham keltiradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик. 9-жилд. – Т., 2011; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома.; Мирзоев А. Сайёри Бухорой ва роли у дар адабиёти доираи ҳунарманди. Изв. Отд. Общ. наук АН Таж. 7, 1955.*

S.G‘.

SAKKIZ UCHMOG‘ – sakkiz jannat, jannatning sakkiz tabaqasi: Dorussalom, Jannat ul-naim, Jannat ul-ma’vo, Dorul xuld, Jannat ul-a’din, Jannati firdavs, Jannati illiyun, Dorul mazid. S.U. deyilganda, odatda, bir-biridan go‘zal sakkiz bog‘ nazarda tutilgan. N. har bir inson o‘z ko‘nglida sakkiz jannatga monand bog‘ yaratishi lozimligini qayd etadi:

Ey Navoiy, sen ko‘ngul bog‘in imorat qilki, bor
Sekkiz uchmog‘ janbida aning muhaqqar bog‘cha.

Haq yo‘liga kirgan oshiqlar va’da etilgan jannatni ham ko‘zga ilmaganlar. Shuning u-n ham N. lirik qahramoni asl maqsadga to‘siq bo‘luvchi jannat havasidan kechishga undaydi:

Navoiyo, sekiz uchmoq havosidin kechkim,
Bular mavoni' erur, yor istar o'lsa birov.

Mashoyixlar ma'no olamida anbiyo va avliyolarning sakkiz fazilatlarini jannatning sakkiz tabaqasiga teng deb bilganlar. Bu fazilatlar tavoze', qanoat, rizo, iffat, sabr, hilm, saxo va ma'rifatdir.

So'fiylarning fikricha, jannat zuhd maqomi bo'lib, zohidlarning orzusidir va tarki uqbo tuyg'usi ular u-n xos emas. Mutasavviflar S.U.ni insondagi besh tuyg'u (ko'rish, eshitish, ta'm bilish, his qilish, to'qinish) va xayol, fahm hamda aql, deb hisoblaganlar. Chunki inson nimani anglasa, shu besh "eshik"orqali anglaydi. Aql ana shu yetti tuyg'u b-n birga bo'lmasa, ular aqlga bo'ysunmay, vujudga tobe bo'ladi. Agar aql ularga hukmini o'tkaza olsa, bu sakkiz xususiyat birdaniga jannat eshigiga aylanadilar.

Ad.: *Азизиддин Насафий. Инсони комил. – Истанбул, 1990; Ҳужвирий. Кашф ул-маҳжуб. – Истанбул, 1996; Абдулазиз Даббоғ. Китоб ул-ибриз. – Истанбул, 1997; Аҳмад Яссавий: ҳаёти, асарлари ва ижоди.*

S.J.

SAKKOKIY (XIV asr oxiri – Samarqand – XV asr o'rtalari) – shoir. S.ning tarjimayi holi haqida yetarli ma'lumot saqlanib qolmagan. Devoni to'liq yetib kelmaganidan hayotining ba'zi nuqtalarini she'rlari orqali oydinlashtirish imkoni ham yo'q. N. "M.N." tazkirasida shoir haqida: "Mavlono Sakkokiy – Movarounnahrdindur. Samarqand ahli anga ko'p mu'taqiddurlar va bag'oyat ta'rifin qilurlar", – deb ma'lumot bersa, Yaqiniy "O'q va yoy" munozarasida uni "turk shoirlarining mujtahididur", deb ta'riflaydi. N. "M.L."da ham Haydar Xorazmiy, Atoiy, Muqimiy, Yaqiniy, Amiriy, Gadoiy kabi o'zbek shoirlari qatorida birinchi bo'lib tilga oladi.

Mirzo Ulug'bek davrining mashhur shoiri bo'lgan S. poytaxt Samarqandda umrguzaronlik qilgan. Shoirning asli ismi noma'lum. Taxallusi (sakkok – pichoqchi degani)dan kelib chiqib, uning hunarmand oiladan ekanligini taxmin qilish mumkin. Uning tug'ilgan yilini Amir Temurning nabirasi Xalil Sultonga bag'ishlangan qasidasidagi:

Tarixqa sakkiz yuz dog'i o'n erdi-yu,
qadr axshomi,
Bir oy tug'uldi dunyodakim, mamlakatda
xon erur, –

baytiga asoslanib, taniqli sharqshunos olim, shoir asarlarini nashrga tayyorlagan Q.Munirov XIV asrning ikkinchi yarmi yoki oxirgi choragida deb taxmin qiladi. Bunga sabab mazkur badiiy yuksak qasidani shoir ijodi ancha gullagan davrda yaratgani, binobarin, bu paytda (1407–1408) u 30 yoshlarda bo'lganini ko'rsatadi.

N.ning Samarqandda o'qigan yillari (1465–1469)da S.ni bilganlar b-n uchrashgani haqidagi ma'lumotlar uning XV asr o'rtalarida vafot etganligidan guvohlik beradi. S. she'rlari orasida Ulug'bekning o'limi haqida hech narsa uchramasligi ham uning Ulug'bek fojiasini ko'rishga ulgurmay, ma'rifatparvar shoh qatlidan oldin vafot etganligini ko'rsatadi.

S. o'zining badiiy yuksak qasidalari b-n o'zbek qasidachiligiga asos solganlardan biri hisoblanadi. Ayni paytda, u g'azal ustozlaridan ham biridir. G'azallarning yetukligi jihatidan shoir Atoiy va Lutfiy qatorida turadi. N. S. va Lutfiyga shunday baho beradi: "Uyg'ur iborati fusahosindin va turkiy alfozining bulag'osindin Mavlono Sakkokiy va Lutfiylarkim, birining shirin abyotining ishtihori Turkistonda beg'oyat va birining latif g'azaliyotining intishori Iroq va Xurosonda benig'oyatdurur va devonlari mavjud bo'lgay".

S.ning ayrim muxlislari Lutfiy b-n raqobatda uning nufuzini oshirish maqsadida Lutfiy she'riyatidagi barcha go'zal ma'nolar S. g'azallaridan o'g'irlangan, degan ovoza tarqatadilar. N. Samarqandda tahsil olgan yillarida bu masalaga oydinlik kiritmoqchi, S. va Lutfiy she'rlarini o'zaro qiyoslamoqchi bo'ladi. Bu haqda "M.N."da shunday yozadi: "Samarqand ahli anga ko'p mo'taqiddirlar va bag'oyat ta'rifin qilurlar. Ammo faqir

Samarqandda erkanda muarriflaridan (ta’rif qiluvchilar) har necha tafahhus (tekshirish, surishtirish) qildimkim, aning natoyiji tab’idin biror nima anglayin, ta’rif qilg‘onlaricha nima zohir bo‘lmadi. Barchadin qolsalar so‘zlari budurkim, Mavlono Lutfiyning barcha yaxshi she’rlari aningdurkim, o‘g‘urlab o‘z otig‘a qilibdur. Ul yerlarda bu nav’ o‘xshashi yo‘q, mazasiz mukobaralar (kibr, mag‘rurlik) gohi voqe’ bo‘lur”.

S. devoni Sharq devon tuzish an’anasiga muvofiq hamd va na’t b-n boshlanadi. Keyin uning 10 ta qasidasi beriladi. Bu qasidalardan 4 tasi – Mirzo Ulug‘bekka, 4 tasi – Arslonxoja Tarxonga, bittasi – mashhur naqshbandiya shayxlaridan Xoja Muhammad Porsoga, bittasi – temuriy shahzodalardan Xalil Sultonga bag‘ishlangan. Qasidalardan keyin g‘azallar boshlanadi. Lekin shoir devonining mavjud nusxalarida “alif”dan “nun” harfigacha bo‘lgan g‘azallar yo‘q. G‘azallar “n” (“nun”) harfi b-n tugal-lanuvchi ikki g‘azal b-n boshlanadi. Shundan keyin g‘azallar alifbe tartibida davom etadi. Lekin “v” (“vov”) harfiga kelib yana uzilish boshlanadi – bu harf b-n tugaydigan g‘azallar tushib qolgan. Devon “i” (“y”) b-n tugallanuvchi 40 g‘azal b-n nihoyasiga etadi. Shunday qilib, shoirdan bizga 10 ta qasida va 56 g‘azal yetib kelgan. Taniqli turk olimi K.Eraslan tomonidan nashr etilgan S. devonida esa jami 70 ta she’r mavjud. Devon avvalida munojot, Payg‘ambar na’ti, Muhammad Porso va Mirzo Ulug‘beklar madhi keltirilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Саккокий. Танланган асарлар. – Т., 1958; Саккокий. Ғазаллар, қасида // Ҳаёт васфи. – Т., 1988; Ўзбек адабиёти тарихи. 1-жилд. – Т., 1977; Муборак мактублар. – Т., 1987; Буюк сиймолар, алломалар. 2-китоб. – Т., 1996; Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т., 1976; Очилов Э. Улуғбек даврининг машҳур шоири // Барҳаёт сиймолар. – Т., 2012.*

E.O.

SAKR-SAHV – sarxushlik va hushyorlik. G‘aybat va huzur holining oliy shakli. Sakr (yoki sukr) ilohiy ishq mayidan mast bo‘lib o‘zini unutgan, o‘zidan kechgan oshiqning holi. Sahv esa buning aksi: o‘zini unutganning o‘ziga kelishi, hushyor bo‘lishi, tamkin holati, g‘aybat holining zoil etilishi. Sakr holisiz sahv holi ham bo‘lmas. Shuning u-n sakri Haq b-n bo‘lganning sahvi ham Haq b-n bo‘lur. Sakri nafsoniy lazzatlarga qorishganning sahvi ham boshqacha bo‘lmas, deyilmish.

Abdulkarim Qushayriyning ta’kidlashicha, “Qul sakr holida hol shohidi (ma’naviy bir hol ila huzuri ilohiydadir) bilandir. Sahv holida esa ilm shohidi (shariat ilmi talablariga ko‘ra amal qilguvchi) bilandir”. Hujviriy sahvni ham “g‘aflat sahvi” va “muhabbat sahvi” deya ikkiga ajratib, bunday yozganlar: “G‘aflat sahvi Haq bilan qul o‘rtasidagi eng katta va eng qalin hijobdur. Muhabbat sahvi eng ochiq kashf erur...” N. “N.M.”da valiylarning S.S. hollaridan xabar beradi. Najmiddin Kubro hazratlari va shogirdi o‘rtasidagi quyidagi rivoyat ham tariqat ahlining holini ko‘rsatadi: “Derlarki, Shayx Majduddin bir kun darveshlar bila o‘lturub erdi. Anga sakre g‘olib bo‘ldi. Dedi: biz o‘rdak bayzasi erduk daryo qirog‘ida va Shayx qushe erdiki, qanoti ostida bizni parvarish berib tarbiyat qildi, to ul bayzadin chiqtuq. Chun o‘rdak bolasi erduk, daryog‘a kirduk va Shayx qiroqqa qoldi. Va Hazrat Shayx karomat nuri bila ul so‘zga voqif bo‘ldilar va muborak tillarig‘a keldiki daryoda o‘lgay”.

S.S. orasidagi asosiy farq esa mana bunday: sakr holida inson o‘zini tamoman unutadi. Aql-u hushni tark aylagani u-n fano va baqoga doir bilim va tushunchalardan ham forig‘ bo‘ladi. Chunki Haq qulga jamol sifati b-n tajalli etgach, u bundan sarxush va sarmast bo‘lib, “men”likdan yiroqlashadi. Sahv holida esa bunday emas, inson hamma narsaga aql nigohi b-n qaraydi, o‘zligiga doir tushunchalardan ajralmaydi. Faqat bularning barchasiga “fano” ko‘zi ila boqadi. Chunki haqiqatda boqiy bo‘lgan va boqiy qoladigani yolg‘iz Allohdir. Boshqasi o‘tkinchi va yo‘qlikka mahkum erur.

Sakr holi insonni tobelik, qaramlik, mahdudlik tuyg‘ularidan xalos aylab, ruhiy faollikni ta’min etsa-da, aql va irodaga yon bermagani bois, Junayd Bag‘dodiy va uning izdoshlari sakrdan sahvni ustun qo‘yganlar. Va sakr sohiblarining holatlarini maqbul ham ko‘rmaganlar. N. “L.T.” dostonida ko‘pgina hikoyatlar keltiradi. Ularda solikning bu ikki holi ramziy-majoziy ishorat tilida beriladi. Ma’lumki, Tavhid vodiysi ta’rifidan so‘ng Mansur Halloj haqida hikoyat keltiriladi:

Bo‘ldi chun Mansur tavhidi durust,
Kim “Anal — haq!” erdi alfozida chust.

Ko‘p nasihat qildilar arbobi din,
Kim bu ermas shevayi ahli yaqin,

Ko‘p suluk ahlig‘a kashf o‘lub bu hol,
Ham adab asrabdurur, ham e’tidol.

Sen dog‘i bu da’vi izhor aylama,
Nafsni mustavjibi dor aylama.

Muridning eng tahlikali, murshidsiz adashib ketadigan holi sakrdir. Shuning u-n badiiy asarlarda ham bu hol ifodalarida shoirning ma’lum fikr-qarashlari ayon bo‘ladi. N. ham irfoniy adabiyotda munozarali bo‘lgan ma’naviy hollarga o‘z munosabatini laduniy ishoratlar orqali aytib o‘tadi. Rivoyat etilishicha, Mansur Halloj Amr bin Usmon b-n aloqani uzgach, Junayd Bag‘dodiyning huzuriga boribdilar. Junayd: “Bizning yonimizga nega kelding?” deb so‘raganida, Halloj: “Shayxning suhbatidan bahramand bo‘lmoq uchun”, deb javob beribdilar. Junayd esa: “Men telbalar bilan suhbat qurmasmen. Suhbat aqlning komilligini talab etar. Aks holda oqibat salaflaring Makkiy va Tustariy kabi bo‘lur”, demish. Halloj: “Ustod, sahv va sakr qulning ikki sifati erur. Qul bashariy sifatlaridan forig‘ bo‘lar ekan, Rabbisidan mahjub qolur...” Junayd: “Mansur, sahv va sakr haqida g‘alat fikrdasen. Sahv – Alloh ila salomatda bo‘lish holi erur. Sakr esa shavq va muhabbatning jo‘shishidir. Bularning ikkisiga ham qasddan va majburan erishib bo‘lmas...”

Boyazid Bistomiy va ul zotning tarafdorlari sakrni sahvdan yuksak hisoblaganlar. Ularning aqidasi bo‘yicha, sahv qul b-n Alloh orasida qalin parda bo‘lgan o‘sha bashariy sifatlarning mavjudligini ta’minlaydi. Sakr esa bu sifatlarni yo‘qotib, ixtiyor, tadbir, tasarruf singari hijoblarni ham o‘rtadan ko‘tarishga qodirdir. Ayrim so‘fiylar sakrni “sultoniy hol”ning eng yuksak kamolga erishuvi, deb bilganlar. “M.Q.”da Boyazid Bistomiy va muridi o‘rtasida kechgan voqelik ham sakr va sahv holiga oydinlik kiritadi: “Manquldurkim, qutb us-solikin va sulton ul orifin, haqiqat ahli imomi, Shayx Boyazid Bistomiy (quddisa sirrihu) bir jonibg‘a bo‘lub erdi ozim va bir muridi anga mulozim. Bir ulug‘ suv ilaylariga keldi. Va Shayx “Alloh!” deb ul suvg‘a qadam urdi va muridg‘a “Boyazid”, deb qadam urmoq buyurdi. Shayx va murid “Alloh” va “Boyazid” deb borurlar erdi. Va sabo va nasimdek suvdin o‘zlarin o‘tkarurlar erdi. Nogoh murid xayolig‘a keldikim, Shayx Alloh zikri bila boradur va meni yo‘lda boshqaradur, men ham vosita sham’in o‘chiray va vahdat bahrida Alloh zikri bila qadam uray. Bu muddao bila ulki qadam qo‘ydi, botti. Shayx dastgirlikka qo‘lin uzotti, ilkin tutub chekti, bahr sohilig‘a otti va muhlika g‘arqobidin sudradi amn manzilig‘a etkurdi va dedi: – Ey farzand, sen avval Boyazidg‘a yet, andin so‘ngra Tengrig‘a yetmak havas et”.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

I.H.

SALAVOT (ar.) – “as-salot”ning ko‘pligi bo‘lib, “duo” ma’nosini bildiradi. Diniy manbalarda aytilishicha, Allohning o‘z Payg‘ambariga yuborgan S.i rahmat va ulug‘lash ma’nosida, farishtalarning hazrat Payg‘ambarga yuborgan S.i

duo va mag‘firat ma’nosida, mo‘min-musulmonlar tomonidan Rasul (s.a.v.)ga aytilgan S. duo va ulug‘lash ma’nosida kelar ekan.

Qur’onda hazrat Payg‘ambarimizga S. aytishlikka buyurilgani hamda Rasuli akram Payg‘ambarimiz hadislarida ham S.ga targ‘ib qilganlari sababli musulmon xalqlari qaysi millatga mansub bo‘lishidan va kim bo‘lishidan qat’i nazar hazrat Payg‘ambarimizga salot-u salom yuboradi. Mashhur hadislardan birida shunday deyiladi: “Anas ibn Molik (r.a.)dan rivoyat qilinadi”. Rasulullоh (s.a.v.): “Kim menga bitta salavot aytsa Alloh taolo unga o‘nta salavot aytadi va undan o‘nta gunoh o‘chiriladi va u u-n o‘nta daraja ko‘tariladi” (Nasoiy rivoyat qilgan). Shu bois, o‘tmish shoirlarimiz asarlarida, umuman, mumtoz adabiyotimizda “odobi tasnif”ga ko‘ra, shoirlarimiz va olimlarimiz kitoblarini hamd-u sano b-n boshlashgan. Ya’ni “bismilloh”dan keyin avval hamd so‘ngra na’t kelgan.Undan keyin asosiy maqsadga o‘tilgan. N. ijodida ham shunday holni kuzatamiz. Shuni bilishimiz kerakki, S. faqat asarning boshida emas, mazmun taqozosi b-n asarning o‘rtasida ham, oxirida ham keladi.

“N.M.”da hamddan keyin shunday na’t – S. keladi: “Irfon va faqirlik sharofati bilan faxrlangan Muhammad (s.a.v.)ga salot-u salomlar yo‘llaymizki, u zot tufayli zamon ahliga iymon sharofati yetishdi. U zot (Muhammad (s.a.v.) odatdan tashqari ishlarning manbai, mo‘jiza, karomot va ilhomning ma’danidir. Va u zotning ma’sum ahlu ayollariga, pok sahobalariga ham salot-u salomlar bo‘lsin!”

“X.M.”da hamddan keyingi S. quyidagicha:

Yuz na’t angakim, xulqi karim o‘ldi fani,
Ya’niki, karam koni Rasuli madani.

Mundoq dedi ilm ahlini aylarga g‘ani,
“Man akrama oliman faqad akramani”.

Sallallohu alayhi va alo olihi va as’hobihi va atboihi va sallama va ba’du: Alloh unga (Muhammad (s.a.v.)ga, uning xonadon ahliga, sahobalariga va uning tobelariga salotu salomlar yo‘llasin! Diqqat qilinsa, yuqoridagi to‘rt qator she’rda, avvalo, madinalik Rasul – hazrat Payg‘ambarimizning xulqi, karam koni ekani vasf qilinadi, maqtaladi. So‘ngra ilm ahllarini g‘ani – ma’naviy boy qilish, ularning izzatini joyiga qo‘yish u-n: “Kim olimlarni hurmat-izzat qilsa, bas, meni izzat qilibdi”, – degan hadis keltiriladi. Oxirgi jumlalar esa S.dir.

“M.L.”ning na’t qismida hazrat Payg‘ambarimiz ta’rif qilingandan keyin ushbu S.keladi “... va sallallohu alayhi va olihit-tayyibina va ashobihit-tohirina va sallama tasliman kasiran, kasira”, “Unga (payg‘ambarga), toza oilasiga va pokiza sahobalariga Allohning salovati va ko‘pdan-ko‘p salomlari bo‘lsin!”.

“H.A.”ning ikkinchi na’tida hazrat Payg‘ambarimizning qirq yoshgacha, “hayo va adab” b-n umr o‘tkazganlari, qirq yoshdan keyin Payg‘ambarlikka erishib, xalqni hidoyatga boshlaganlari, mo‘jizalari, saxovatlari va h.k. barcha sifatlari birma-bir zikr qilinadi. Ulug‘ mutafakkir shoirimiz na’ti quyidagi S. b-n tugaydi:

“Hodiyuno kavkab-u iqbolihi,
Sallu alayhi va alo olihi”.

Tarj.: Uning iqbol yulduzi bizni hidoyatga boshlaydi. Unga va ahli oilasiga salavotlar ayting.

N. “M.” asarining Na’t qismini: “Ulki, “kuntu nabiyyan va Odam-u baynal-moyi vattin” mazmuni anbiyoga muqaddamdur, “rahmatan lil-olamin va xotamun nabiinin” mantuqi bila alarga muaxxar va xotamdur, habibi Hazrati Iloh Muhammad rasulullоh sallallohi alayhi vasallamdur...” jumlalari b-n boshlab, “yuz yigirma to‘rt ming anbiyoyi mursal”ning hamda “o‘n sekiz ming olam ixtiro’idin” maqsad u Zot ekani, “sohibme’roj”ligi, “avvalinu oxirin xalqi aning shafoatiga muhtoj”ligi va h.k. ta’rif-tavsif qilib, quyidagi S. b-n tugallaydi: “Salavotullohu alayhi va alo olihit-tayyibin va ashobihit-tohirin”.

Tarj.: Alloh unga (Muhammad (s.a.v.)ga),

uning ma’sum xonadon ahllariga va pokiza sahobalariga salotu salomlar yo‘llasin!

Ta’kidlash kerakki, S. Rasulullohni o‘ziga xos duo qilish, ulug‘lash, sifatlarini zikr qilish bo‘lganidan keyin “X.”dagi na’tlar yoki “X.M.”-dagi na’t g‘azallar to‘la ma’noda S. bo‘lmasa-da, ayrim o‘rinlardagi matnlar S.lik xususiyatidan xoli ham bo‘lmaydi.

Ko‘rib o‘tganimizdek, N. asarlarida keltirilgan na’tlar, rang-barang S.lar mutafakkir shoirning e’tiqodiy qarashlarini yaqindan bilishga xizmat qiladi hamda kitobxonda S. aytish tuyg‘usini o‘stiradi. Bu jihatlar N.ning Muhammad (s.a.v.) ga bo‘lgan cheksiz muhabbatining ifodasidir.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Муножот. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Саҳиҳи Бухорий. 1 ва 2- китоблар. – Т., 2008; Гўзал салавотлар. – Т., 2020 (Нашрга тайёрловчи: Сайфиддин Сайфуллоҳ).*

S.R.

SALB – arabiy tonish, inkor, yo‘qqa chiqarish, yo‘q qilish, ketkazish ma’nolarini anglatadi.

Mosivalloh xotirimdin salb qil,
Anda zikringni huzuri qalb qil.

Alloh taolodan o‘zga hamma narsani xotiridan ketkazib, solik zikrni qalbining huzuriga aylantirmoqchi. Umuman, N. she’riyatida S. qilmoq o‘zlikdan qutilmoq, nafsni yengmoq ma’nolarida keladi:

Istasang mulki baqo, salb qil o‘zlukni burun,
Ki suluk ichra fano ahlig‘a budur uslub.

“L.T.” dostonida “salb vujud” birikmasi kelib, o‘zlikdan voz kechish, nafsni tazkiya etish ma’nolarini beradi:

Ahli haq bu nav’ etib salbi vujud,
Budini bu vajh ila aylab nabud.

Bo‘yla oshom ettilar jomi fano,
Qolmog‘ondin so‘ng asar o‘zdin yano.

“salb bo‘lmoq” birikmasi ham “yo‘q bo‘lmoq, yo‘q qilinmoq” ma’nolarida qo‘llaniladi:

Chun riyozat raf’ etib ruhoniyat,
Salb bo‘lg‘och kimsadin nafsoniyat.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

Z.R.

SALMON SOVAJIY (1300 –1376, Sova) – fors-tojik shoiri. Asl ismi Jamoliddin bo‘lib, Salmon uning adabiy taxallusidir. Fors viloyatining moliyaviy ishlarini boshqargan otasi Xoja Alouddin boy-badavlat bo‘lib, o‘g‘liga yaxshi tahsil berdi va u yoshligidanoq elxoniylar saroyiga yo‘l topdi. Bu sulola inqirozga uchragach, uning o‘rniga kelgan jaloyiriylar xonadoni muassisi Shayx Hasan Buzurg uni Bag‘dodga – o‘z huzuriga da’vat etdi. Shoirning qariyb ellik yillik umri jaloyiriylar saroyida o‘tdi va bu xonadon hukmdorlariga bag‘ishlab, ko‘plab qasidalar bitdi.

S.S. she’riyati g‘azal sultoni Hofiz Sheroziyga kuchli ta’sir ko‘rsatgan. “M.Q.”dagi shoirlar tasnifida u ijodida majoziy ishq tasviri ustun ijodkorlar qatoriga kiritilgan. N. S.S.ning turli bahrlar va rang-barang she’riy san’atlar asosida yaratilgan nihoyatda murakkab va badiiy barkamol masnu’ qasidasiga tatabbu’ yozgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Абдураҳмон Жомий. Баҳористон (Ш.Шомуҳаммедов тарж.). – Т., 1997; Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар бўстони. – Т., 1981; Адабиёти форсу тожик дар асрҳои XII-XIV. Қисми II. – Душанбе, 1983; Гулшани адаб. Намунаҳои назми форсу тожик. Иборат аз панж*

жилд. Жилд 2. Асрҳои XIII-XIV. – Душанбе, 1976; Шарафуддин Роқимий. Тарихи томм. – Т., 1998; Куллиёти Салмони Соважий. Ба тасбеҳу муқаддимаи Аббосали Вафоий. Чопу дуввум. – Теҳрон, 1982 (ҳ.-ш.).

E.O.

SALOSIL (silsila so‘zining ko‘plik shakli; leksik ma’nosi zanjirlar demakdir) – N.ning “F.Sh.” dostonida uchraydi, tog‘ ustida joylashgan qo‘rg‘on nomi. Rivoyatlarga ko‘ra, qo‘rg‘on S. degan dev tomonidan qurilgan bo‘lib, shu dev nomi b-n atalgan va bu haqida N. dostonda shunday ma’lumot beradi:

Yasab devi hamul qo‘rg‘onni hosil.
Ki, bor ermish aning oti Salosil.

Salosil qo‘rg‘oni el ichra mashhur,
Aning oti bilakim qildi ma’mur.

N.ning dostonda bitgan syujetiga ko‘ra, Xusrav Parvez vaziri Buzurg Ummid maslahati b-n Farhodni bir shaytonsheva hiylakor yordamida hiyla-nayrang ishlatib, qo‘lga tushiradi va maxsus qo‘riqchilar qurshovida bandi qilib, S. qo‘rg‘oniga qamab qo‘yadi:

O‘zni ko‘rdi ajoyib tog‘ ichinda
Salosil qaydida, ag‘lol ichinda.

Boshida Xusrav oyin borgohi,
Turub atrofida xaylu sipohi.

Suqrot unga bir xufiya ilm o‘rgatgan ediki, uni o‘qisa, barcha bandlar o‘z-o‘zidan yechilib ketar edi. U yarim kechalari shu yo‘l b-n zanjirdan xalos bo‘lib, atrofni aylanib keladi, lekin qochib ketmaydi. Chunki o‘zi tufayli qo‘riqchilarning boshini baloga qo‘yishni istamaydi, holbuki, uning malaksifat va farishtatabiat yigit ekanligini ko‘rib, uni kechirib yuborib, har baloga ko‘kraklarini qalqon qilishga tayyor edilar. Shundan keyin uni o‘z holiga erkin qo‘yib qo‘yadilar. Junun tug‘yon qilganida tog‘-u vodiyda ohu faryod urib yuradi, o‘ziga kelganida esa qo‘rg‘on ahli b-n dilkash suhbatlar quradi, dasht-u tog‘dagi hayvonlar va qushlar b-n birga bo‘ladi. Shuni nazarda tutib, Shirin unga yozgan maktubida “sen topting Sulaymonlik maqomin” deydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик. 6-жилд. – Т., 2011.*

B.R.

SALYE Mixail Aleksandrovich (1899, Peterburg – 1961, Toshkent) – sharqshunos olim. Leningrad universitetining Sharq fakultetini tamomlagan. O‘zbekiston Davlat halq kutubxonasida Sharq qo‘lyozmalari bo‘limida (1940–1943), so‘ngra umrining oxirigacha O‘zR FA Sharqshunoslik institutida ilmiy xodim bo‘lib ishlagan.

S.M.A. ko‘proq Sharqda yaratilgan ilmiy va badiiy asarlarni rus tiliga tarjima qilish b-n shug‘ullangan, Beruniy, Ibn Sino asarlarini, mashhur “Ming bir kecha”ni, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarini rus tiliga o‘girgan.

S.M.A. faoliyatida N. ijodi va merosini tadqiq etish xam o‘ziga hos o‘rin tutadi. U 1945-y.da “Alisher Navoiyning kam o‘rganilgan ikki asari: matn, tarjima, tadqiqot” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan. Dissertatsiya “H.P.M.” va “H.S.H.A.” asarlariga bag‘ishlangan edi. Ishda olim N.ning mazkur asarlariga xos bir qator xususiyatlarni yoritib bergan, shuningdek, undan muallifning xar ikki asar matniga doir kuzatishlari ham o‘rin olgan, ayni paytda dissertant “H.S.H.A.” va “H.P.M.” asarlarining tarjimasini ham bergan. Ushbu dissertatsiya N.ning nasriy merosi namunalariga bag‘ishlangan tadqiqot sifatida muayyan ahamiyatga ega. 1947-y.da S.M.A. Oybekning “Navoiy” romanini rus tiliga tarjima qilgan va u chop etilgan. Tarjimonninng sharqshunos, n.shunos ekanligi, Sharq adabiyoti va tarixini yaxshi bilishi tarjimaning muvaffaqiyatli chiqishini ta’minlagan. O‘rta asrlarga xos so‘zlar va atamalarni o‘girishda tarjimon

maqbul yo‘l tutgan, ya’ni zo‘rama-zo‘raki ekvivalentlarini topishga urinmagan. Madrasalarda o‘qitiladigan kitoblar nomlari, geografik atamalarning o‘zini qoldirgan. Bunday yondashuv, bir tomondan, asliyatdagi davr ruhini, mahalliy koloritni saqlashga xizmat qilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, tarjimaning asliyatga yaqin bo‘lishini ta’minlaydi. Tarjimonning Sharq mumtoz adabiyoti namunalarini rus tiliga o‘girish, ular ustida tadqiqotlar olib borishdagi tajribasi romanda turli shaxslar tilidan aytilgan baytlar, adabiyotga va she’riyatga doir mulohazalar bayon qilingan parchalarni tarjima qilishda, ayniqsa, qo‘l kelgan. M-n, asar personajlaridan biri Alovuddin Mashhadiy o‘z xujrasida bo‘lib o‘tgan suhbat chog‘ida bir bayt o‘qiydi. Zamondan shikoyat, o‘sha davrda aqlli, iste’dodli odamlarining qadr topmaganligi haqidagi fikr ifodalangan ushbu baytni S.M.A. rus tiliga go‘zal badiiy shaklda o‘girgan:

Часто в нашем мире все наоборот,
Умному – презренье, дураку – почёт.

Roman muallifi yuqorida tilga olingan personaj, ya’ni Mashhadiy she’rlari xaqida so‘z yuritar ekan ularga nisbatan “silliq”, “uslubi rangli” ta’riflarini qo‘llaydi va shunday yozadi: “Kim biladi ehtimol, Mashhadiyning silliq nazmi, rangli uslubi valine’matining ko‘nglini shunday asir qilarki, u aqcha bilan birga bir necha qo‘y va isqarlot chakmon ham in’om qilib yuborar!”. Tarjimon “silliq”ni “отшлифованный”, “rangli uslub”ni “цветистый слог” deb o‘girgan va asliyatdagi fikrni aniq va ravshan ifodalagan.

S.M.A. o‘zining “H.P.M.”, “H.S.H.A.” asarlariga bag‘ishlangan tadqiqoti hamda Oybekning “Navoiy” romanining rus tiliga tarjimasi b-n n. shunoslikka va N. asarlarini tarjima qilishga muhim hissa qo‘shdi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳолоти Саид Ҳасан Ардашер. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ҳолоти Паҳлавон Муҳаммад. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Лунин Б. Библиографические очерки о деятелях общественных наук Узбекистана. – Т., 1987; Бобур энциклопедияси. – Т., 2014; Айбек. Навои. – Т., 1968.*

Q.E.

SAMAD VURG‘UN (Samad Yusuf o‘g‘li Vekilov 1906–1956, Boku, Ozarbayjon) – atoqli ozarbayjon shoiri, dramaturgi, publitsist, tarjimon, adabiyotshunos. Ozarbayjon Respublikasida xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi (1943), Ozarbayjon xalq shoiri (1956). S.V.ning ijod yo‘li Moskva va Boku adabiy muhitida shakllandi. 1930-y.da uning “Shoirning onti”, 1934-y.da “Ko‘ngil daftari”, “Fonar”, 1939-y.da “Ozod ilhom”, 1947-y.da “Inqilob taronalari”, 1951-y.da “Ovrupo xotiralari” to‘plamlari bosilgan. 1954–55-yy.da 3 jildlik “Saylanma”si chop etilgan. 1960–1972-yy.da shoir va asarlarining olti tomlik nashri bosmadan chiqdi. “Voqif” (1938), “Xonlari” (1939) singari asarlar yozib, drama janrida mahoratini oshirgan S.V. 1942-y.da Nizomiyning “Xusrav va Shirin” dostoni asosida “Farhod va Shirin” nomli dramasini yaratdi. Ta’kidlash o‘rinliki, asardagi Farhodning bosh qahramon qilib olinishi, Farhodning shoh Xusravga qarshi kurashlari tasvirida N. dostonining ta’siri yaqqol seziladi. S.V. maqola va tadqiqotlarida Nizomiy va N. munosabatlarini ko‘p marotaba qalamga oladi, N. ijodini Xoqoniy, Nizomiy kabi daho so‘z ustalari qatorida yuksak baholaydi. 1938-y.da “Ulug‘ o‘zbek shoiri Navoiy tug‘ilganiga 500 yil to‘lishi munosabati bilan Yubiley Qo‘mitasi” tuzilgach, mazkur qo‘mitaning 1940-y.da bo‘lib o‘tgan majlisida Ozarbayjon delegatsiyasining rahbari sifatida Toshkentga kelgan S.V. nutq so‘zlab, jumladan, shunday obrazli fikrlarni bildirgan edi: “Men va mening safdoshlarim ancha paytgacha Navoiyning o‘zbek shoiri ekanligini bilmasdik. Chunki she’riyat majlislarida uning she’rlarini, g‘azallari-

ni ozariy lahjada eshitib, o‘qib kelganimiz bois uni Ozarbayjon shoiri, deb bilganmiz. Hazrat Navoiy turkiy adabiyot rivojida, qolaversa, Sharq adabiyotida fors tilining hukmronligini bartaraf etishda beqiyos hissa qo‘shgan. Navoiy dahosi, Navoiy siymosini o‘lchaydigan biror mezon yoki me’yorning o‘zi yo‘q. Navoiy buyuk adabiy merosgagina emas, buyuk bir tilga, o‘zbek adabiy tiliga asos soldi. U ko‘pqirrali ijod sohibi edi. Uning tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarix sohalari rivojiga qo‘shgan hissasi ham benihoya ulkan. Men Navoiyni azim bir daryoga qiyoslayman. Bizning ba’zi olimlarimiz bu daryoda o‘zlari yasagan yog‘och qayiqlarda suzmoqchi bo‘ladilar. Menimcha, bu daryoda faqat zamonaviy ilm-fan yutuqlari asosida bunyod etilgan mustahkam kema bilangina suzish mumkin. Navoiy chin ma’noda Nizomiy bilan yelkama-yelka turgan, uning panjasiga panja urgan mutafakkirdir”.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Самад Вурғун. Танланган асарлар // Воқиф. – Т., 1978; Алишер Навоий Озарбайжон адабиётшунослигида (мақолалар, сўзбоши Олмос Улвий). – Боку, 2009; Almaz Ülvi. Əlişir Nəvainin əsri və nəsri (elmi-filoloji və dinitəsəvvüfi əsərləri). Monoqrafiya. – Bakı, 2022.*

S.O‘.

SAMOYLOVICH Aleksandr Nikolayevich (1880–1938) – Sharq adabiyotiga ehtirom b-n munosabatda bo‘lgan rus olimlaridan biri, akad. U: “Men uchun Sharqda bo‘lish, Vasilyev orolida (Sankt-Peterburg) bo‘lishdan ko‘ra muhimroq. Men – Majnun, Turkiston – Layli. Tabiatimda musulmonlarga qandaydir yaqinlik bor va men ular bilan tez chiqishaman”, – deb yozgan edi va magistr paytidayoq taqdirini Markaziy Osiyo b-n bog‘lab, ilm-fan u-n muhim tadqiqotlarni yaratishga muvaffaq bo‘ldi. Akad. S.A.N. ning tadqiqotlarini yuzaga chiqarishda G.F.Blagova alohida o‘rin egallaydi, ammo olima masalaga tilshunoslik nuqtayi nazaridan yondashgan.

S.A.N.ning tadqiqotlarida turk tillarining tarixini o‘rganish masalasi yetakchi o‘rin egallaydi. U, asosan, Markaziy Osiyo turk adabiy tilining tarixi ustida bir qator izlanishlari olib borgani alohida ehtirom b-n tilga olinadi. Uning tadqiqotlari “Qutadg‘u bilig”dan boshlanib, N. va Bobur asarlari qo‘lyozmalari ustida boradi va “Chig‘atoy tili” (XII–XIX) yoki olim undan ham noaniq deb hisoblagan “sharq-turk” (восточнотюркский) singari terminlarning qo‘llanilishiga qarshi chiqib, “среднеазиатско-турецкий” deb yuritishni taklif qiladi va u Islom madaniyati davrining adabiy tili tariqasida uning tarixi va davrlarini o‘rganadi. Akad. S.A.N. N. qo‘lyozmalariga murojaat qilgan va o‘rganishga kirishgan birinchi rus olimlaridandir. Editsion tadqiq usulida yaratilgan izlanishlaridan birida ta’kidlanishicha, u N. asarlari ustida olib borgan tadqiqotlarida quyidagi uch tamoyilga tayangan: birinchidan, tadqiq qilinmagan va deyarli, fanga ma’lum bo‘lmagan asarlarni har tomonlama o‘rganish, tarjima va chop qilish; ikkinchidan, tarjima va chop qilingan asarlar bo‘yicha keng qamrovli ilmiy ish olib borish; uchinchidan, yig‘ilgan material asosida dastlabki turdosh ishlarni yaratgan. Olim nafaqat buyuk mutaffakir asarlarini o‘rgandi, balki u b-n bir davrda yashagan ko‘plab ijodkorlar ijodiga murojaat qildi, uning e’tiboridan, hatto Husayn Boyqaro devoni ham chetda qolgan emas. 1919-y. o‘zining mashhur ocherki “Turk xalqlarining adabiyoti”ni chop qildiradi. Unda N.ijodiga atroflicha to‘xtalib, o‘zbek adabiy tilning rivojlanish tarixida egallagan muhim o‘rni va beqiyos hissasini e’tirof etadi. Olimning bu boradagi fikrlari uning “К истории литературного Средноазиатско-Турецкого языка” maqolasida ham davom ettirilgan. Shuningdek, S.A.N. N.ning “M.” asari asosida uzoq izlanishlar olib borib, o‘z tadqiqotlari davomida N.ning lingvistika sohasidagi qarashlari nechog‘lik muhim bo‘lganini ko‘rsatib beradi. Olimning “Эмир Али-Шир Наваи. Сравнительное изучение двух языков: Фарсидского и Тюркского” maqolasi esa “M.A.” tahliliga qaratilgan.

S.A.N.ning tadqiqotlari nafaqat tilshunoslik, balki n.shunoslik sohasida muhim ahamiyatga egadir.

Ad.: *Архив И.Ю.Крачковского // Петербургский филиал архива РАН. – Ф.1026; Благова Г.Ф. Из истории тюркской текстологии. Самойлович А.Н. – исследователь "Бабурнаме". – М., 1993; Самойлович А.Н. Тюркское языкознание. Филология. Руника // Составители Благова Г.Ф., Насилов Д.М. – М., 2005; Дмитриева Л.Д. Материалы к описанию рукописного наследия Самойловича А.Н. // Народы Азии и Африки. – М., 1966, №3; Рустамов Э.Р. Узбекская поэзия в первой половине века. – М., 1963; Турдиев Ш. Академик Самойлович ва ўзбек адабиёти // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 2008, № 2.*

Sh.R.

SAMARQAND – Osiyodagi shahar. Qadimgi madaniyat o‘choqlaridan biri. Eramizdan oldingi davrlarda paydo bo‘lgan. Sal kam uch ming yillik tarixga ega. Shahar tarixining eng porloq sahifalari temuriylar davri b-n bog‘liq. O‘rta Osiyoda mo‘g‘ullar hukmronligiga barham berib, o‘z saltanatini yaratgan sohibqiron Temur Ko‘ragonning 35 yillik podshohligi davrida S. dunyoning eng go‘zal va muhtasham shahriga aylandi. Ayni paytda siyosiy, madaniy, ilmiy markaz ham bo‘lib qoldi. Shahar N. davrida ham madaniy, adabiy markaz sifatidagi o‘rnini yo‘qotmagan edi. S. N. ijodida ham o‘ziga hos o‘rin tutgan. Ma’lumki, shoir o‘z hayotining eng og‘ir yillarida, Hirotda moddiy jihatdan qiynalgan, ijod qilishi va kun kechirishi u-n sharoit bo‘lmagan bir paytda S.dan panoh topgan. Mashhur Xoja Fazlulloh Abullaysiy xonaqohida yashab, u zotning qo‘lida ta’lim olgan, S.ning shoir-u fuzalolari b-n tanishgan, ayrimlari b-n ijodiy hamkorlik qilgan. Ularning aksariyati haqida keyinchalik u o‘zining “M.N.” tazkirasida ma’lumot bergan. Xoja Xurd, Xoja Xovand, Darvesh Shuhudiy, Orif Farkatiy, Darveshbek, Mirzo Xoji So‘g‘diy, Mir Qarshiy, Mavlono Javhariy, Mavlono Riyoziy, Xarimiy Qalandar, Mavlono Tarhoniy va boshqalar shular jumlasidandir, Shuni aytib o‘tish lozimki, o‘sha vaqtda N.ning bir nechta hirotlik qadrdon do‘stlari xizmat yuzasidan S.ga kelgan edilar, jumladan, Xurosonda tarbiya topgan, 10 yilga yaqin Hirot hokimi bo‘lib turgan Ahmad Hojibekni Sulton Abusaid mirzo S.ga yuborgan va vafot etgan Jonibek do‘ldoyning mansabini unga topshirgan edi. Ahmad Hojibek b-n birga N.ning boshqa bir do‘sti Mirzobek ham S.ga kelgan edi. N. asarlarida “yori aziz” deb tilga olinuvchi Shayximbek (Shayx Ahmad Suxayliy) ham shu yerda edi. Bu hol shoirning musofirlikdagi hayotini yengillashtirgani, unga katta ma’naviy-ruhiy madad bo‘lgani shubhasizdir. Xususan, Ahmad Hojibekning homiyligi N.ning bu yerdagi hayoti va ijodi u-n muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Shu sababli ham Zahiriddin Muhammad Bobur Ahmad Hojibekni N.ning S.dagi murabbiysi va muqavviysi deb atagan edi: “Bilmon, ne jarima bila Sulton Abu Said mirzo Hiriydin ixroj qildi. Samarqandg‘a bordi, necha yilkim Samarqandta edi, Ahmad Hojibek murabbiy va muqavviysi edi”.

Mazkur davrda Movarounnahrning turli viloyat va shaharlaridan ham S.ga ta’lim olish va yashash u-n kelar edilar. Binobarin, N. faqat S. fozillari, shoir va olimlari b-n emas, boshqa joylardan kelgan iste’dodli ijodkorlar b-n ham tanishish, ijodiy hamkorlik qilish imkoniyatiga ega bo‘ldi, u “M.N.”da Andijondan kelgan Safoiy, Yusuf Badiiy, toshkentlik Uloyi Shoshiy va boshqalarni tilga olib o‘tgan. Jumladan, Yusuf Badiiy xaqida shunday yozadi: “Badiiy taxallus

qilur erdi. Ul ham Andijondindur... Faqir tahsil uchun Samarqandg‘a borg‘onda ul Andijondin keldi va anda faqir bila bo‘lur erdi. Sig‘ari sin jihatidin she’rida xomliq bo‘lsa, faqir isloh qilur erdim...”. N. S.da orttirgan do‘stlari b-n aloqalarini Hirotga qaytganidan keyin ham davom ettirgan. Ularning ayrimlari N.ni panoh tortib, Hirotga kelganlar va bu vaqtda e’tiborli davlat arbobiga aylangan N. ularga g‘amxo‘rlik ko‘rsatib, har tomonlama qo‘llab-quvvatlagan. Yuqorida tilga olingan Yusuf Badiiy ham Xurosonga kelib, N. homiyligi ostida yashab ijod qilgan. Xoja Fazlulloh Abullaysiyning o‘g‘illari Xoja Xovand va Xoja Xurd ham Hirotga kelganlar va ulug‘ shoir ular u-n barcha zarur sharoitlarni yaratib bergan.

N. S.da o‘tgan kunlari va do‘stlari b-n bog‘liq xotiralarni umrbod yuragida saqlagan. “Soqiynoma” asarida u Vafoiyga (Ahmad Xojibek) maxsus murojaat qiladi va Darveshbek, Mirzobek singari do‘stlarini yodga oladi. N. asarlarida S. tarixiga doir ma’lumotlar ham aks etgan. Bunday ma’lumotlarni “T.M.A.”da va “S.I.”da uchratish mumkin. Boshqa o‘rta asr tarixchilari kabi N. ham S.ni Iskandar bino qilgan deb hisoblaydi. Jumladan, “T.M.A.”da shunday yozadi: “va aning osoridin Ya’juj saddidur va Marv va Hirot va Samarqand va Isfihonni ham debdurlarkim, ul bino qildi”. Bu fikr shoirning “S.I.” dostonida ham o‘z badiiy ifodasini topgan:

Hamul pushtakim, Ko‘hak to anga ism,
Ne pushta, jahon ganji uzra tilism.

Ushoq tosh anga la’l-u inju kibi,
Yashil sabzasi charx-u miynu kibi.

Ki mansub anga Ko‘hak suyi,
Nedinkim erur jori andin quyi...

Aning yonida shahar qildi bino,
Ki, o‘lturmasun anga gardi fano.

Skandar otadi Samarqand ani
Samarqandi firdavsmonand ani.

Ad.: *Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ўзбек адабиёти тарихи. 5 жилдлик, 2-жилд. – Т., 1977.*

Q.E.

SANAQULOV Usmon (1940) – f.f.d-ri, prof. 1971-y. “Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarining tili” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan. Olim asardagi fonetika va morfologiyaga oid ma’lumotlarni tahlil qilishda, asosan, N. qarashlariga suyanadi. Fors tilida vov va yoy ikki xil unli (uzun-qisqa)ni anglatsa, turkiy tilda ular to‘rttadan unlini anglatgan. Bu unlilar bir-biridan uzun-qisqaligi b-n farqlangan. Shoir alif va hoyi havvaz b-n tugovchi so‘zlarni bir-biriga qofiya qilish mumkinligini ta’kidlagan. Ishning morfologiyaga bag‘ishlangan qismida ot, sifat, son, olmosh, fe’l, ravish, ko‘makchi, bog‘lovchilar haqida ma’lumot berilgan. Ot yasovchi *-chi* (yurtchi, nayzachi), *-vul* (qorovul, yasovul), *-lig‘* (yag‘lig‘, jarlig‘), *-lik* (terlik, shikastalik), *-dosh, -tosh* (qardosh, ko‘kaltosh), *-ga, -ka* (enaga, ataka), *-in* (sag‘in, chaqin), *-moch* (ko‘moch, tutmoch) affikslari haqida keng ma’lumot berilgan. Kishilik, o‘zlik, so‘roq olmoshlariga ko‘plab misollar keltirilgan.

Sifat yasovchi *-roq* (-rak) affikslariga quyidagi misollar keltirilgan: daqiqroq, muloyimrak. Ishda fe’l so‘z turkumiga oid so‘zlar tahliliga keng o‘rin berilgan. Burung‘i, yuqori, tegrada kabi ravishlar, modallik ma’nosidagi erkin, ekan, erkan so‘zlari yaxshi tahlil qilingan. Yuklama yasovchi *-mu* (olurmu), – o‘q (turkcha o‘q) affikslari haqida ham ma’lumot berilgan. Bog‘lovchi (va, ham, goh-goh) va undov (ayo, oh)larning vazifalari yaxshi ko‘rsatilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Муҳокамат ул-*

луғатайн. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Санакулов У. Исследование языка памятника XV в. "Мухокамат-ул-лугатайн" Алишера. Навои: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1971; Санақулов У. Алишер Навоийнинг "Муҳокамат ул-луғатайн" асарининг тили. Филология ф-ри бўйича номзодлик дисс. – Т., 1971; Санақулов У. Қадимги туркий адабий тил. Дарслик. – Самарқанд, 1987; Санақулов У. Алишер Навоийнинг сўздан фойдаланиш маҳорати ва қофия. Илмий рисола. – Самарқанд, 1988; Санақулов У. Эски ўзбек адабий тили. – Самарқанд, 1988; Санақулов У. Алишер Навоий ўзбек адабий тили сатҳлари ҳақида. – Т., 2016; Санақулов У. У.Турсунов ижодида Алишер Навоий ижодининг талқини. – Самарқанд, 2009.

E.U., S.O'.

SAMO' – eshitish, tinglash; qo'shiq, musiqa, raqs. Darveshlarning zikr majlislarida davra aylanib, jo'shib raqs tushishlari. Majoziy mazmunda – vajd va soliklar holati. Tariqat arboblarining xonaqoh va takkalarda ijro etadigan marosim usuli mavlaviylarda – "samo'", qodiriylarda – "davron", rifoiylarda – "zikri qiyom", naqshbandlarda – "xatmi xojagon" deb yuritilgan.

Abulqosim Bag'dodiyning tasnifi bo'yicha, S. ikki xildir: 1. So'z tinglamoq. 2. Kuy tinglamoq. S.ning birinchi xilida biroz so'z tinglanib, undan ibrat va saboq olinadi. Lekin bunday samo' faqat poklik va qalb huzuri b-n eshitilmog'i lozim. Ikkinchi xil S.da esa tasavvuf tarixining ilk bosqichlaridayoq musiqa ruhning g'izosi va rizqi sifatida e'tirof etilgan. Ruh ozig'iga erishdimi, u yuksak maqomlarga parvoz qilgan. Imom G'azzoliy ham "Ma'rifat sohiblariga samo' ruhning ozig'i erur... Shuning uchun musiqiy zavqni faqat nozik bir tabiat va sof bir ruh bilan idrok aylash mumkindir", – degan. S. uch niyat b-n tinglanmog'i joiz bo'lgan: sevgi, vajd va xafv. S.da nash'aning uch alomati kuzatilgan: raqs, olqish va quvonch. S. solik holini o'zgartirishi haqidagi fikr-qarashlar N. asarlarida ta'kidlangan va S.ning ma'naviy valodatdagi o'rni asoslangan. "M.N."da Mavlono Muhammad Tabodgoniy holi xususida: "Har qachon samog'a kirsa erdi, bovujudi ulkim, usul qoidasi bila harakoti muvofiq ermas erdi, ammo xaloyiqg'a andoq asar qilurkim, ko'p el yig'lar erdilar", – deydi. "M.Q."da ham "Mutrib va mug'anniylar zikrida" Haq yo'lchisiga ta'siri, uning hol evrilishi, maqom yuksalishidagi samo'ning ta'sirini ko'rsatib beradi: "...Suluk ahlig'a bir maxuf yer bu manzildurkim, anda ham nuqson-u ham kamol hosildur. Solik bu yerda bir muhlik oh bila ham maqsudg'a yetubdur va bir na'rayi jonkoh bila yillar qozg'ong'oni ham ilgidin ketibdur. Shibliy va Nuriy (quddissa sirrihumo) S.da kettilar va bu yo'l suluki bila maqsud sarmanzilig'a ettilar. Baso ahlullohki, arg'anun unidin dayrg'a kirdi va din va islom naqdin mug'bachalarg'a boy berdi". "N.M." tazkirasida esa avliyoullohning odat-u karomatlarini S. vaqti b-n bog'lab tushuntiradi: "...tasbehdin va g'ayridin va at'ima-yu ashriba izhori hojat vaqti besabab zohir bo'lmoq va suv ustida yurumoqdek va havoda sayr qilmoqdek va yemak ul nimaniki, odatan ul g'izo bo'lmag'ay va hayvonot tasxiri va badanda mufrit quvvat izhori andoqki, daraxtni tubidin qo'ng'ormoq, samo' vaqtida. Va devorni barmoq ishorati bila shaq qilmoq va ilik ishorati birla muxolifning boshin uchurmoq va daryolarda g'arq bo'ladurg'on kemani tutub, qiroqg'a chiqarmoq...". Shu bois tazkirada valiylarning ma'naviy rutbasi, holdan holga o'tishi S. payti b-n bog'liq holda keladi. M-n, "Shayx ul-islom dediki, Abu Abdulloh Boku dedikim, Ayyub Najjor Makkada bir Qazviniy uyida samo' qilur erdi. Go'yanda bir forsiy bayt o'qudi. Ul qo'pti tuz qaddi bila va dedi: nafire sendin! Va yiqildi va behush bo'ldi va Shayx dunyodin o'tti". Ammo S. u-n vaqt, makon va birodarlik muhim sanalgan. S.da ruhiy yaqinlik, ma'naviy birodarlikka e'tibor qaratilgan. Unday majlislarda xoslar ishtirok etgan. "N.M."da bevosita tasavvuf haqida nazariy asoslar o'rtaga tashlanadi. Valiylarning mulohazalari orqali N.

o‘z fikrlarini ilgari suradi. Jumladan, S. to‘g‘risida ham: “Shayx Sulamiy debdurki, Abusahl Sulukiydin samo’ni so‘rdilar. Dediki, “samo’ – haqiqat ahli u-n mustahab, olimlar uchun muboh, fosiq va fojirlar uchun makruhdir”. Ulug‘ shoir mazkur asarida Xoja Muayyad Mehnaning ham “Samo’ni muassir” bajarganini eslatib o‘tadi. N. baytlaridan birida ma’shuqning S.ga kirgan paytlarida boshiga qudsiy makonlardan arvohlar inib, charx urib aylanganini ta’kidlaydi: Bu o‘rinda N. S.ning ijobiy fazilatlariga ishora qilgan:

Qachon ul ruhi musavvarki samo’ ichra kirar,
Evrulur boshig‘a quds amkinasidin arvoh.

Samo’ o‘ziga xos bir ma’naviy uyg‘onish va surur majlisi bo‘lgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик.,9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Азизиддин Насафий. Инсони комил. – Истанбул, 1990; Абдухолиқ Ғиждувоний. Мақомоти Юсуф Ҳамадоний. Васиятнома. – Т., 2019.*

Z.R.

SAMUD – Bu qavm Arabiston yarim oroli, Hijoz diyorining shimoliy qismida Hijr deb ataladigan yurtda istiqomat qilgan. U yurt hozir Madoyini Solih (Solih shaharlari) deb ataladi. Ularning payg‘ambari Solih (a.s.) bo‘lgan.

N. “T.A.H.” asarida Solih (a.s.) payg‘ambar qilib yuborilgan Samud qavmning sarkashligi va alamli azobga mubtalo bo‘lganliklarini bayon qilib beradi. Uning yozishicha, Hud (a.s.) dan keyin Alloh taolo Solih (a.s.)ni Samud qavmiga payg‘ambar qilib yuboradi. Ular Hijoz va Shom orasidagi Hijr degan joyda yashashgan. Ular Od qavmi zavolga uchragandan keyin ularning uy-joyiga va mollariga ega bo‘lishib, juda boyib ketishgan. “Bu jihatdin g‘urur dimog‘larig‘a yo‘l topib, jahl va g‘aflatdin gumroh bo‘lub, Haq taolo amr va nahyidin bo‘yun to‘lg‘ob, butparastlik ixtiyor” qilganlar. Ularni hidoyat qilish u-n Alloh taolo Solih (a.s.)ni payg‘ambar qilib yuboradi. U kishi xalqni har qancha to‘g‘ri yo‘lga dalolat qilsalar ham, ozgina odamdan tashqari boshqalari unga ergashmaydi. Oxiri qavmi Solih (a.s.)dan “mo‘jiza tilab”, aytadiki: “xora toshdin duo qilib, bir bo‘talig‘ teva chiqorg‘il. Solih alayhissalom duo qilib, Haq taolo ul toshni shaq qilib, (yorib) teva bo‘tasi bila tosh arosidin chiqti”. Shunchalik b-n ham qavm Solih (a.s.)ning payg‘ambarligini e’tirof etmaydi. Lekin u kishi tuya va bo‘talog‘iga tegmaslikni, ular daxlsiz o‘tlab yurishini, aksincha Allohning balosi kelishini tayinlaydi. Tuya o‘ttiz yil o‘tlab yuradi. Hatto bu tuyaning sutidan foydalanishadi. Lekin qavmi orasidan ba’zilar fitna va ig‘vo qilib, tuyani o‘ldirishga qaror qilishadi. Oqibat qavmi bir necha kishi yuborib, tuyani so‘yib yuboradi, bo‘talog‘i tog‘ tarafga qochib ketadi. Shundan keyin “Solih alayhissalom ul qavmg‘a ayttikim, bu beboklikkim sizdin voqe’ bo‘ldi, Haq taolodin muning intiqomi sizga bu bo‘lg‘usidurkim, uch kungacha bir kun yuzlaringiz sorig‘ bo‘lg‘usidur, ikinchi kun tiyralikka moyil bo‘lub, uchunchi kun tamom qororg‘usidur, deb uyiga yuzlondi”. Tuyani “o‘lturgon badbaxtlar Solih alayhissalomni dog‘i” o‘ldirishni qasd qiladilar. Solih (a.s.)ning yaqinlari aytadilarki, sabr qilinglar, uni bergan va’dasiga oz qoldi, gaplari rost kelmasa, “harne qilsangiz bilursiz”. Bu so‘z ularga “ma’qul ko‘runub qoyttilar”. “Ammo Solih alayhissalom degan yo‘sun bila uch kunda uch alomat zohir bo‘lur. Va ul qavmg‘a holate zohir bo‘ldikim, o‘zlarin iztirob birla yerga urarlar erdi, nogoh Malakut olamidin bir mahobatliq un keldikim, borchalari halok bo‘ldilar”.

Tafsir kitoblarida Solih (a.s.) qavmiga uch yo‘nalishda azob kelgani aytiladi: Birinchisi, “kuchli qichqiriq“, bo‘lgan (“Qamar” surasi, 31-oyat), ikkinchisi, “shiddatli zilzila” bo‘lgan (“A’rof” surasi, 78-oyat), uchinchisi, “xorlik azobining chaqmog‘i” yetgan (“Fussilat” surasi, 17-oyat). Bu balolardan keyin barcha qavm halok bo‘lib, Solih (a.s.) b-n birga bir yuz yigirma kishi salomat qolgan.

N. qissa oxirida Solih (a.s.) qavmidan bo‘lgan Abuzu’ol otlig‘ bir kishi b-n bog‘liq rivoyatni keltiradi. Bu odam qavmga balo kelganda Makka Haramida bo‘lgan va tirik qolgan. “Haramdin chiqg‘och, o‘ldi va aning bir shox oltuni bor erdi, hamul oltun bila dafn qildilar”. Ming yillar o‘tgandan keyin “hazrat” payg‘ambarimiz (s.a.v.) sahobalari b-n u yerdan o‘tayotib, Abuzu’olning qabrini ko‘rsatadilar. “Va Solih nabiy va Samud qavmin qissasini” aytib, “ul shox oltundin ham xabar” beradilar. “As’hob ul yerni shaq qilib, (yorib) oltun mavjud edi, oldilar”. N. ning ta’kidlashicha, Solih (a.s.) ikki yuz sakson yoshda vafot etgan. Nuh (a.s.) shariatiga ergashgan. Qabri “Haram yaqinida – Dor un-Nadvada”, ba’zilar “Rukn bila Maqom arosida ham debdurlar”. N. “T.M.A.”da Arfahshodning qardoshi bo‘lgan Eramning 7 o‘g‘li bo‘lgani, birining oti Samud ekani va Hijozda yashaganini aytadi. Samud qavmi mana shu kishidan tarqagan.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Носириддин Бурҳониддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. 1–2-жилдлар. – Т., 1990–1991; Обидов Р. Пайғамбарлар тарихи исломият тарихидир. – Т., 2005. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Анбиёлар қиссаси. 20-жуз. – Т., 2007.*

S.R.

SANAM – arabiy lafz bo‘lib, but demakdir. Badiiy adabiyotda sevgili, go‘zal majoziy ma’nolarida, shuningdek, nafs, nafsi ammora, inson b-n Yaratgan o‘rtasidagi to‘siq ma’nosida ham qo‘llaniladi. N. lirikasida ham S., odatda, yor ma’nosida keladi:

Butekim kuch bila chekti boshimni
sajdag‘a emdi,
Vafodin bosh chekar, ko‘rgilki, ne sarkash
sanamdur bu.

Eng buyuk S. nafsdir. Mashoyixlar insonning buti, S.i o‘zi b-n deyishadi.

Samad qilg‘ach zuhur ul nav’kim asnom
o‘lur ma’dum,
Bo‘lur butlar bari mabhut, bo‘lg‘ach
ul sanam paydo.

S.ning ko‘pligi asnomdir. Samad Alloh ismlaridan biri bo‘lib, Qur’oni Karimning “Ixlos” surasida bir marta tilga olinadi. U hech kimga muhtoj emasdir, hamma orzu va ehtiyoj Unga aytiladi. Samad zikri aytilishi b-n S. mahv bo‘ladi. N. g‘azallarida Samad va S. ko‘p hollarda yonma-yon tilga olinadi:

Navoiy g‘ofil o‘lma, ul sanamning qasrin aylansang,
Samad zikrini mazkur aylakim, tavfi haramdur bu.

N. sanam zikriga mashg‘ul bo‘lganlarga shunday tavsiya qiladi:

Navoiy aytur emish dayr aro sanam zikrin,
Bu ism zikriga kim qilsa mayl bismillah.

S. – ruhi haqiqat, insoni komil, piri komil, murshid obrazlarini ham tamsil etadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1–4-жилдлар. – Т., 2011.*

Z.R.

“SANGLOH” – N. asarlariga tuzilgan lug‘atlar ichida 1759–60-yy.da kitobat qilingan “S.” alohida o‘rin tutadi. Ushbu lug‘atda 8 mingdan ortiq o‘zbekcha so‘zlar fors tilida izohlangan. Lug‘atga misollar, asosan, N. asarlaridan olingan. Shu b-n birga unda Mir Haydar, Husayn Boyqaro, Lutfiy, Iskandar Mirzo, Bobur kabi mumtoz o‘zbek adiblaridan ham olingan misollar uchraydi. Ushbu lug‘at tuzuvchi Mirza Muhammad Mahdixon qomus tuzishda o‘zidan avval tuzilgan lug‘atlarning yutuq va kamchiliklarini hisobga olgani u-n “S.” puxta chiqqan.

Lug‘at 1960-y.da ingliz olimi Jerard Klouson tomonidan nashr qilingan. Afsus, olim lug‘atdagi so‘zlar orfografiyasiga oid ma’lumotlarga e’ti-

bor bermaganligi u-n o‘zbekcha so‘zlar noto‘g‘ri transliteratsiya – harfma-harf ag‘darilgan. Nashrning eng ahamiyatli tomoni unda lug‘atning faksimilesi berilganidir. Faksimile tufayli bu kamchilikni bartaraf etish mumkin.

Lug‘atda ismlar bosh kelishikda izohlangan:

آوچی (53v) – sayyodr o nomand

a:vchi – [forscha] sayyod

Qomusdan son va ravishlar ham o‘rin olgan:

تورتاو (172 r) – ya’ni chahorta

to‘rtav – [forscha] chahorta

آج (32 r) – gurusna

a:j – [forscha] gurusna

Fe’llarning avval masdar, so‘ng boshqa shakllari berilgan:

آیاماق (53 v) – ba fatxi yoy ba alifi kashida ba ma’ni darig‘ doshtan

a:ya:maq – y cho‘ziq a: bilan [forscha] darig‘ doshtan آیادی (53 v) – darig‘ dosht

a:ya:di [forscha] darig‘ dosht

آیادینك (53 v) – darig‘ dashti

a:ya:ding – [forscha] darig‘ dashti

آیادوق (53 v) – darig‘ dashtim

a:ya:duq – [forscha] darig‘ dashtim va boshqalar.

“S.”da turkcha va mo‘g‘ulcha so‘zlar ham izohlangan:

انجق (51 v) – ba sukuni nun va qof va fathi jim ba turki rumiy bama’ni hamon...

anjaq – nun va qof ustida sukun, j fathali turkcha hamon... دابوسون (223 r)– ba zammi bo va sini muhmala va sukuni nun ba lug‘ati mug‘uli namak bud

dabusun – *b* va *s* zammali, nun ustida sukun, mo‘g‘ulcha so‘z ma’nosi namak – tuz.

So‘zlar orfografiyasiga oid ma’lumotlar, asosan, ikki usulda ko‘rsatilgan. Birinchi usulda so‘z tarkibidagi harflar ta’kidlanadi:

خلج (222 v) – ba fathi lom ismi toifaist az atrok...

xalaj – lom fathali turkiy qabilalardan birining ismi

اوكساك (79 v) – ba sukuni kofi avval va soniy va fathi sini muhmala ba ma’ni baland...

uksak – birinchi va ikkinchi k sukun, nuqtasiz sin fathali[forscha] baland...

Ikkinchi usulda forsiy so‘z vazni orqali ko‘rsatilgan:

دارا (223 v) – bar vazni xaro bama’ni hamisha va doim...

dara – xara vaznidagi so‘z kabi, ma’nosi hamisha va doim...

بات (119 v) – bar vazni mat ba ma’nii zud...

bat – mat vaznida [forscha] zud...

“Sang.”da so‘z variantlari yonma-yon berilgan:

توپراغ و توپراق (167 v) – xokro go‘yand...

tuprag‘ va tupraq – [forscha] xok...

تاراغ و تاراق (154 v) – bama’ni shona bud...

tarag‘ va taraq – [forscha] shona...

So‘zlar, asosan, bir ma’nosi b-n izohlangan:

اوزاق (73 v) – ba ma’nii dur...

uzaq – [forscha] dur...

اوزانكو (73 v) – rikobro go‘yand...

uzangu – [forscha] rikob...

Shu b-n birga boshqa ma’nolari ham qayd qilingan:

اینجو (117 v) – ba sukuni nun va zammi jim ba se ma’ni omada avval marvaridro go‘yand... duyum ba ma’ni mamluk boshad, seyum imlok...

inju – nun ustida sukun, j zammali uch ma’noli birinchisi marvarid... ikkinchisi qul, uchinchisi egalik...

بخشی (119 v) – ba sukuni xo va kasir shin navisanda va dabir va xonanda va jarrohro go‘yand...

baxshi – *x* ustida sukun, *sh* kasrali yozuvchi va kotib va o‘qiydigan va jarroh...

اوكوت (79 v) – ba zammi kofi ajamiy va sukuni toi qarashat pand va nasihat ro go‘yand...

o‘gut – *g* zammali, *t* ustida sukun [forscha] pand, nasihat...

اوكوش (80 r) – ba zammi kofi ajamiy va sukuni shini qarashat ba ma’ni bisyor va farovon...

o‘gush – *g* zammali, *sh* ustida sukun, [forscha] bisyor va farovon...

Iloji bo‘lmaganda keng izohlaydi:

آلتایی (49 v) – ba fathi to va kasr yoyi xutti jonivorist babr narki gurbaki muyi on surxist va po‘sti onro po‘stin kunand va bardo‘za kuloh do‘zand...

a:ltayi – *t* fathali yoyi xutti (y) kasrali mushuksimonlar oilasiga kiruvchi jonivorning qizil terisidan tikiladigan po‘stin va quloqchin...

Omonimlar Sharq lug‘atchilik an’anasiga binoan bir lug‘at maqola ichida berilgan:

اوچماق/غ (62 v) – ba sukuni jimi ajamiy chahor ma’ni dorad avval ba ma’ni tayron va paridan boshad, soni ixtiloj solast mahvu ma’dum shudan chahoram bihishtro go‘yand...

uchmaq / *g‘* – jimi ajamiy *-ch* ustida sukun, to‘rt ma’noli birinchisi tayran [uchish] va paridan [uchmoq], ikkinchisi ixtiloj [ko‘zning uchishi], uchinchisi mahv [yo‘q bo‘lish] va ma’dum [yo‘q bo‘lish] to‘rtinchisi bihisht [jannat]... “S.”dagi misollar N.ning nodir qo‘lyozmalaridan olinganligi sababli ayrim nashr kamchiliklarini tuzatishga yordam beradi. “M.N.”dan olingan quyidagi jumla: “Chun Xoja Ahmad Jomiy qush asrab solur, alar dag‘i taqlid qilibdurlar. Solur chog‘ida ulog‘lari yo‘q ermish, bag‘oyat biyik kishi bir qo‘llarig‘a o‘zlarin ko‘tartib qush solur ermishlar”, “S.”da quyidagi shaklda uchraydi: “... qush solur chog‘da ulog‘lari yo‘q ermish, bag‘oyat biyik kishi bir qo‘llarig‘a o‘zlarin ko‘r tortib qush solur ermishlar”. Ko‘rinadiki, lug‘atdagi misol mantiqan to‘g‘ri. Nashrdagi “o‘zlarin ko‘tartib” o‘rnida “ko‘r tortib” ishlatilgan. Ko‘rovchilar qo‘liga kiyadigan ichi yungli qo‘lqop. Burgutning tirnoqlari ovchining qo‘liga kirib ketmasligi u-n ular qo‘llariga ko‘r kiyadilar.

Ushbu lug‘at Mirza Muhammad Mahdixon yozib ketgan so‘zlarning orfografiya va orfoepiyasiga oid ma’lumotlari asosida qayta nashr qilinishi lozim.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

E.U.

SANDALI SIMIYO – N. asarida tasvirlangan sehrli maskan. Bu tasvir “S.S.” dostonidagi oltinchi iqlim yo‘lidan keltirilgan musofir hikoyatidan o‘rin olgan. S.S. dengiz o‘rtasidagi bir orolchada bo‘lib, sandalga o‘xshagan ulkan bir daraxt, uning kovagidan chiqadigan buloq va uning boshida joylashgan toshdan iborat. Toshda quyidagi mazmunda xat bitilgan: Kim bu manzilga yetib kelgan bo‘lsa, bilsinki, bu simiyodur. Uning oti S.S. Ushbu buloq suvidan ichgan odam, agar u to‘g‘ri so‘zli bo‘lsa, bir oygacha yegulik va suvga ehtiyoj sezmaydi. Yolg‘onchi bo‘lsa uch kundan so‘ng taom yegisi va suv ichgisi keladi. Bu suvdan ichgan kishi bir marta yolg‘on so‘zlasa, o‘sha zahoti qorni yorilib o‘ladi. Yolg‘onchi ushbu suvga tushsa, tanasi kuyadi, rostgo‘y tushsa, rohatlanadi. U g‘usl qilish u-n quloq-burnini bekitib, suvga cho‘milsa, boshini chiqargandan so‘ng, shunday narsalarni ko‘radiki, ularni so‘zlab berish mushkul. Dostondagi S.S. tasviri va u b-n bog‘liq epizodlar N.ning badiiy taxayyuli va tasavvurining naqadar kengligi va o‘ziga xosligini, ikkinchi tomondan, uning badiiy mahoratini o‘zida yaqqol namoyon etadi. U yerdagi daraxtni shoir shunday tasvirlaydi:

Go‘yi ul bir daraxt edi oliy,
Rang-u rif’atda charx timsoli.

Ul daraxt erdi go‘yiyo sandal,
Bargi ko‘zgulari topib sayqal.

Kimki har ko‘zguni qilib manzur,
Shohidi baxt aylab anda zuhur.

Rif’ati ko‘kka tegurub poya,
Bargidin bahrni yopib soya.

Soyasidin su garchi anbarfom,
Sandaloso topib isini mashom.

S.S. hikoya qahramoni taqdirida o‘ziga xos rol o‘ynaydi va asarda muhim badiiy funksiyani bajaradi. Umuman, N. dostonlarida turli timsollar, sehrli buyumlar b-n bog‘liq epizodlar ko‘p bo‘lib, muallif ulardan o‘zining g‘oyaviy-badiiy niyatini amalga oshirishda mahorat b-n foydalanadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011.*

Q.E.

SANDUQ USH-SHAHODA – diniy manbalarga ko‘ra, Muso (a.s.) tomonidan yasalgan sandiq. Unda “alvohi samoviy”, ya’ni nuzul bo‘lgan ilohiy kitoblar saqlangan. Uni muhofaza qilish Horun (a.s.) va uning avlodi zimmasiga yuklatilgan. Muso (a.s.) o‘limidan sal oldin Tavrotni kotiblarga buyurib ko‘chirtirgan. Bir nusxani o‘z qo‘li b-n ko‘chirgan va “S.Sh.”ga solgan. Boshqa nusxalarini turli qavmlarga yuborgan.

N. “T.A.H.”da “S.Sh” haqida ma’lumotlar bergan. Uning tasvirlashicha, sandiq javohirlar b-n bezatilgan bo‘lgan. Uning atrofini esa qimmatbaho matodan tikilgan shodurvon va saroparda o‘rab turgan. “Va Muso (a.s.) seksan yashog‘andi”, – deb yozadi N., – “Tengri taolo amri bila bir sanduq yasab, javohir bila murassa’ qilib, alvohi samoviyni anda solib, tegrasiga haftrang debodin shodurvon va saroparda tikib, aning muhofazatin Horun (a.s.) avlodig‘a muqarrar qildi. Va ani “sanduk ush-shahoda” atadilar. Va ul tavobe’ Bayt ul-Maqdisqa shuhrat tutti”.

N. o‘z asarida S.Sh b-n bog‘liq yana bir ma’lumotni ham keltiradi. Ma’lumki, Muso (a.s.) b-n Qorun o‘rtasida ziddiyat bo‘lgan. Buning birinchi sababi Qorunning zakot to‘lashdan bosh tortgani bo‘lsa, ikkinchisi Muso (a.s.)dan Bayt ul-Maqdis va sanduqi shahodani uning ixtiyoriga berishni talab qilgani edi. Muso (a.s.) buni rad qilgan va shunday degan: “Ul ishlar Haq taolo amri bila anga (Horun (a.s.)ga – Q.E.) qaror tutubdur, andoqki, muncha zohir asbobi senga mutaaliq bo‘lubdur”. Lekin Qorun bu so‘zlarni e’tiborsiz qoldirib, Muso (a.s.)ga dushmanlik qilishga o‘tgan va oqibatda halok bo‘lgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

Q.E.

SARAXS – Markaziy Osiyodagi qadimiy shahar, Tajan (Harirud) daryosi va Mashhadga yaqin, Ozarbayjon b-n Eron chegarasida joylashgan shahar. Tarixchi Abuhanifa Dinovariyning (IX asr) yozishicha, shahar aholisi Abumuslim bosqiniga qarshi himoyalangan. S. somoniylar davrida kelib taraqqiy etib, Xurosonning markaziy shaharlaridan biriga aylandi. Tarixiy manbalarda bitilishicha, S XI–XII asrlarda rivojlangan shaharlar sirasiga kiradi. Xorazmshohlardan (hukmronlik yillari 1172–1193) S.ni qo‘lga kiritadi, XIV–XV asrlarda temuriylar tasarrufidagi shahar va undan shayboniylar egallaydi. S.dagi me’moriy yodgorliklardan Abulfazl maqbarasi (XI) hozirgacha saqlanadi. S. odamlari yirik, yeri serhosil, kunjut, zira va boshqa mahsulotlar yetishtiriladi. S. yaylovlarida qorako‘l qo‘ylar boqiladi, S. qorako‘l terisi jahon bozorida mashhur. N. bu haqda: “Mavlono Saraxsda hazrati Shayx Luqmon (quddisa sirruhu) mazori boshida bo‘lur…”. “Mir Said el orasida “Kobuliy” laqabi bila mashhurdur… Sulton Abu Said mirzo ilgida Saraxs qo‘rg‘onida shahid bo‘ldi…”, – deb yozadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алиакбар Деҳхудо,. Луғатнома, Теҳрон. – 1998; 9-жилд.*

Muh.A.

SARBADORLAR – (f.: sar – bosh, ba dor – dorga, ya’ni boshini dorga tikkan) XIV asrning 30-yillari o‘rtalarida Eronda, so‘ng Markaziy Osiyoda mo‘g‘ullar zulmiga qarshi yuzaga kelgan xalq harakati qatnashchilari. 1337-y. qo‘zg‘olonchilar Sabzavor shahrini (Xuroson) egallab, S. davlatini tuzdilar. Bu davlat 1381-y.gacha yashadi. S. 1353-y. Gurgondagi oxirgi ilxon, mo‘g‘ul hukmdori – Tog‘ay Temur qo‘shiniga qaqshatqich zarba berdilar, uni o‘ldirdilar. Bu b-n ular Xurosonda mo‘g‘ullar hukmronligiga uzil-kesil chek qo‘ydilar.

S. Movarounnahrda ham faollik ko‘rsatib, mo‘g‘ul hukmronligiga qarshi kurashdilar.

S. harakati, ularning ozodlik g‘oyalari badiiy adabiyotga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Mashhur fors-tojik shoiri Ibn Yamin Faryumadiy (1286-1368) ijodi bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Uning qit’a shaklida yozgan ba’zi she’rlari haqida prof. I.S.Braginskiy quyidagi fikrni aytgan edi: “To‘g‘rilik, sofdillik uning she’rlarining

go‘zalligi (estetikasi)ni tashkil etadi. Ularning ba’zilari qo‘zg‘olonchilarning kichkina-kichkina jangovar varaqalari singari jaranglaydi”.

N.ning otasi G‘iyosiddin Kichkina Abulqosim Bobur hukmronligi davrida (XV asrning 50-yillari boshida) S.ning sobiq poytaxti – Sabzavorga hokim qilib tayinlangan bo‘lib, S. haqidagi gaplar hali bu shaharda, bu viloyatda unutilmagan edi. Bu shaharda G‘iyosiddin Kichkina sobiq sarbador shoir Mir Shohiyga katta hurmat ko‘rsatgan. Bu shoir Astrobodda vafot etganda, G‘iyosiddin Kichkina uning jasadini oldirib kelib, butun xalq ishtirokida tantanali dafn marosimi tashkil etgan. N. “M.N.”da bu haqda shunday deydi: “Astrobodda anga (Mir Shohiyga) qazo etib, na’shin Sabzavorg‘a kelturdilar va obo va ajdodi daxmasida xaloyiqni o‘tru chiqorib, ani oxirat yeriga dafn qildilar”. Bu dalil N. otasining sarbador Mir Shohiyga nisbatan iliq munosabatda bo‘lganini ko‘rsatadi.

N. “M.N.”da Mir Shohiy haqida yozar ekan: “Sabzavorliqdur. Asli sarbadorlardin bo‘lur”, – deb ta’kidlaydi. N.ning o‘zi ham Mir Shohiyni yaxshi ko‘rgan, u b-n hatto xat yozishib turgan (“Faqir agarchi ani ko‘rmadim, ammo aning bila faqirni orasida e’lom va irsol voqe’ bo‘ldi”). Bu esa N.ning ham sarbador shoirga ijobiy qaraganini, g‘oyat hurmat qilganini namoyish etadi.

S. shoiri Ibn Yamin Faryumadiy nomini N. hech bir asarida tilga olmagan bo‘lsa ham, uning qator she’rlari, xususan, bir necha qit’a va ruboiylari Ibn Yamin she’riyati N.ning ijodiga chuqur ta’sir ko‘rsatganidan guvohlik beradi. Uning “Kimki maxluq xizmatiga kamar...”, “Tavakkulni ulkim qo‘yub xotirig‘a...”, “Chu dushman o‘ldi qadamiy, ziyonidin hazar et...”, “...Kamol et kasbkim, olam uyidin...” misralari b-n boshlangan qit’alarini Ibn Yamin Faryumadiyning “Har ki bandad kamar ba xidmati xalq...”, “Maro luqmayi non, ki darxur buvad...”, “Har ki ozurdi ba kinash, z-o‘ mador ummedi mehr...”, “Man andar kasbi asbobi fozoyil...” deb boshlangan qit’alariga qiyoslab o‘rganish N.ning sabzavorlik shoir she’riyatiga juda yaqin turganini, bu yaqinlik shoir nazmining ijtimoiy-siyosiy o‘tkirligini oshirganini isbot qiladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Набиев Р.Н. XV асрда Ўрта Осиёда сарбадорлар қўзғолони. –Т., 1942; Петрушевский И.П. Движение сарбадаров в Хорасане // Статья. – М., 1956; Султон И. Навоийнинг қалб дафтари. – Т., 1969; Ҳайитметов А. Навоийнинг сарбадорларга муносабати // Ҳаётбахш чашма. – Т., 1974; Ҳайитметов А. Отношение Алишера Навои к сарбадарам. (журнал “Народы Азии и Африки”, 1972, №2).*

Ab.H.

SARBARAHNA (Mir Sarbarahna) – N. davrida yashagan fozil kishilardan biri. Asl ismi Sayyid Shamsiddin Muhammad. Kelib chiqishi Andijon viloyatidan. Lekin umrining asosiy qismi Xurosonda o‘tgan. N.ning homiyligida faoliyat olib borgan va shu sababli yuqori martaba hamda izzat-u hurmatga sazovor bo‘lgan. “Hirotga kelgandan keyin hidoyatli amir Alisherning inoyati va tarbiyati tufayli boshi Firqadondan ham yuqori bo‘ldi”, – deb ma’lumot beradi bu haqda tarixchi Mirxond. Yigirma yil Shayx Luqmon mozorining mutavvallisi bo‘lgan. Sulton Husayn Boyqaro saroyida sadrlik lavozimida ham ishlagan. N. uni xushsuhbat va shirinkalom kishi sifatida ta’riflaydi. S.ga N. bergan bu ta’rifning to‘g‘riligini Bobur ham tasdiqlaydi. “Boburnoma”da bu xususida shunday so‘zlar bor: “Bisyor xushsuhbat va xushtab’ va shirinkalom kishi edi. Xuroson fuzalosi va zurafosi qoshida aning dahli va so‘zi mo‘tabar va san’at edi”. Bobur S.ning sayyidligiga uncha ishonqiramaydi, “g‘olibo mutasayyiddur” deydi. Aytib o‘tish lozimki, bunday gap-so‘zlar N. davrida Hirotda ham bo‘lgan va N. ularni tazkirasida keltirgan va e’tiborsiz deb hisoblagan: “Mir ul viloyatning vojib ul-ehtirom sodotidindur, agarchi arzol va xubaso musallam tutmaslar va nimagina derlar ammo ul toifaning so‘ziga e’tibor yo‘qdir”. S. sadrlik lavozimida

turganda u b-n Xoja Husayn Kirangiy o‘rtasida raqobat yuzaga kelgan. N. huzuriga borib, S. Xoja Husayn ustidan shikoyat qilgan va shunday degan: “Banda sayyid bo‘lishi va yoshi ulug‘ligiga qaramasdan oliymaqom dargoh xodimlari orasida xizmatdadir, lekin Xoja Husayn mendan yuqori turishni orzu qilmoqda, shu kunlarda xizmatkorlar u nimani buyursa shunga amal qilmoqdalar”. Aslida Xoja Husaynda hech qanday ayb bo‘lmagan, u o‘z vazifasini sidqidildan bajargan va bu barchaga ma’lum edi. Shoir S. ni “X.M.” asarida ham tilga olib o‘tgan. Unda N. o‘zining

Yak nazar farmoni, mustasno shavam z-i
abnoyi jins,
Sag chu shud manzuri Najmiddin sagonro
sarvarast,

degan bayti va she’rda qo‘llangan “kasri nafs” usuli xususida S. ning bildirgan fikri va N.ga e’tirozi hamda o‘zining unga bergan javobini keltirgan. Bu savol-javob o‘sha paytda adabiy doiralarda mashhur bo‘lib ketgan va ushbu epizod S.ning chindan ham xushtab’ va o‘ziga xos fikrlovchi inson ekanidan dalolat beradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Хамсат ул-мутаҳаййирин. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 2002.*

Q.E.

“SARGUZASHTNOMA” – Furqat (1859–1909)ning o‘z qo‘li b-n yozgan va hayotlik vaqtida matbuotda bosilib chiqqan tarjimayi holi. 1891-y.da “Turkiston viloyatining gazeti” muharriri N.Ostroumov iltimosiga ko‘ra yozilgan va “Ho‘qandlik shoir Zokirjon Furqatning ahvoloti, o‘z yozg‘oni” sarlavhasi b-n ushbu gazetada bosilgan. Adabiyotshunoslar tomonidan “Furqatnoma” deb ham ataladi. “S.”ning bir o‘rnida shoir o‘zining to‘qqiz yoshda ro‘y bergan ayrim holatlarini yozar ekan, juma kechasida ko‘rgan bir muborak tushiga alohida to‘xtalgan. Tushida Farididdin Attor, Hofiz kabi ulug‘ so‘z ustalari qatorida N.ni va uning “Chor devon”i (“Xazoyin ul-maoniy”) ni ko‘rganini, shoir bo‘lishi haqida bashorat berilgani hamda ilk she’riy mashqi haqida to‘lqinlanib yozgan: “...Va xossa yuqorida uch mo‘ysafidi farishtasiyrat kishikim, huzurlarida katta kitoblar yozilg‘on, birbirlari birla munozara qilurlar va men pastda qo‘l bog‘lab salom qildim. Ul azizlardin biri javobi arzon tutub, chaqirib, ul majlisdin joy ko‘rsatdilar. Adab zonusi birla o‘lturdum. Tahsilimdan savol qildilar. Devoni Amir Navoiy deb ta’ziman javob berdum. Ul aziz ishorati birla bir kishi meni oldimg‘a bir kitob yozub qo‘ydi. Ul kitob Amir Navoiyning “Chor devon”lari ermish. Andin mening qo‘lumg‘a qalam va qog‘oz berib, har qaysilari bir misradin bayt ayttilar. Men yozib tamom qildim, ersa hammalari qo‘l ochib haqqimda duo qildilar va she’r mashqiga ruxsat berdilar...”. Tasvirda Furqat mahorat b-n yashirin talmehda Attor, Hofiz ijodiga, ochiq talmehda esa N. ijodiga va ularni o‘ziga ustoz sanaganiga, ularning asarlarini chanqoqlik b-n mutolaa qilganiga ham ishoralar qilgan.

Ad.: *Фурқат. Танланган асарлар. 2 томлик, 2-том. – Т., 1960.*

B.R.

SARDOBA – Suv tanqis hududlarda uni to‘plash va saqlash u-n maxsus qurilgan gumbazli hovuz. Ma’lumki, cho‘l-u biyobonlarda ichimlik suv hamisha muammo bo‘lgan. Donishmand ajdodlarimiz S.lar qurib, yomg‘ir va qor suvlarini to‘plash yo‘li b-n bu muammoni hal etganlar. Q. Rajabov va B.Soliyevlarning yozishlaricha: “Sardobalarda suvni ifloslanishdan saqlash u-n atrofi devor bilan o‘ralgan, suvning yerga singishini kamaytirish choralari ko‘rilgan, suv bug‘lanishini kamaytirish maqsadida bunday hovuzlarning usti yopilgan... Buning u-n sardobaning hovuzi ostiga suvning saqlanishi va uning sizot suvlaridan toza turishi u-n ganch bilan ishlangan yumaloq g‘ishtlarni ishlatganlar. G‘ishtlar ustidan saksovuldan

tayyorlangan ko‘mir qatlami to‘shalib, uning ustidan 3 qavat tuya junidan tayyorlangan kigiz, so‘ng esa pardozlangan 3 qavat mol terisi yopilib, uning ustidan g‘isht terilgan va ganch suvalgan. Bu hol bir necha bor takrorlangan. Bunda saksovul suvni tuzlardan tozalashda filtr vazifasini bajargan bo‘lsa, ganch, pishiq g‘isht va mol terisi suvning ortiqcha yerga shimilib ketishidan himoya qilgan. Pishiq g‘ishtlarni terishda ham loyga qo‘y suti va tuya juni qo‘shilgan. S. devorlarining qalinligi 1,5 metrgacha qilib terilgan”. Bu so‘z N. g‘azallari va dostonlarida uchraydi.

G‘arqa el dafni uchun sardobayedur har hubob,
Ishq vodiysinda ashkim selining daryosidin.

Ad.: *ЎзМЭ. 7-жилд. – Т., 2004; Қудратов С. Сардобалар ўлкаси. – Т., 2001; АНАТИЛ, 3, 1984; Ражабов Қ., Солиев Б. Қоровулбозор тумани тарихи. – Т., 2015.*

E.O.

SARE’ (ar. – tez) – mustaf’ilun (3-hijo qisqa, qolgan hijolar cho‘ziq – – – V –) aslining 2, maf’u(v)lotu (4-hijo qisqa, qolganlari uzun) aslining 1 marta takrorlanishidan hosil bo‘ladigan bahr (mustaf’ilun mustaf’ilun maf’u(v)lotu – – – V – / – – V – / – – – V). Tez aytiladigan bahr bo‘lgani u-n shunday nomlangan. Ruknlar tarkibiga ko‘ra, munsarih bahriga yaqin turadi. N. “M.A.”da uning 5 vaznini, Bobur “Muxtasar”da 17 vaznini misollar b-n birga keltirgan.

S.ning vaznlari ko‘p bo‘lsa ham, ulardan 2 tasigina she’riyatimizdan o‘rin olgan bo‘lib, bular sare’i musaddasi matviyi makshuf hamda sare’i musaddasi matviyi mavquf o‘lchovlaridir. Oxirgi hijoning cho‘ziq yoki o‘ta cho‘ziqligi bilangina farqlanuvchi bu 2 vazn bir she’riy asarning o‘zida birgalikda qo‘llanaveradi.

S. bahrining she’riyatimizdan o‘rin olishi N. nomi b-n bog‘liq. Uning ijodiga qadar ushbu bahrda she’r yozish an’anasi o‘zbek she’riyatida uchramaydi. Shoir ushbu 2 vazn asosida o‘zining 2 g‘azali, 1 fardini, eng muhimi “H.A.” dostonini yaratib, S. bahrining o‘zbek adabiyotidan o‘rin olishi va keng qo‘llana borishiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Jumladan, asarning “bulutdek foyda yetkazuvchilar”ga bag‘ishlangan 13-maqolatidagi mashhur:

Odami ersang demagil odami,
Oniki yo‘q xalq g‘amidin g‘ami, –

hikmat ham sare’i musaddasi matviyi makshuf vaznida (muftailun muftailun foilun – V V – / – V V – / – V –).

Ushbu she’riy o‘lchov dastlab Nizomiyning “Maxzan ul-asror” dostonida qo‘llangan edi. X. chilik an’anasiga ko‘ra ozarbayjon shoiri izidan borgan Xusrav Dehlaviy ham, Abdurahmon Jomiy ham, N. ham o‘z “X.”sining birinchi dostonlarida shu o‘lchovni saqlab qoldilar. Ushbu vazn lirik va hajviy she’riyatimizda ham ancha keng qo‘llangan. Chunonchi, Haydar Xorazmiyning “Gulshan ul-asror” dostoni, Muqimiyning “Tanobchilar” hajviyasi kabi asarlar mazkur vazn asosida yaratilgan.

Shoir S. bahrida qator g‘azallar ham yaratgan. M-n, quyidagi g‘azali ham S.i musaddasi matviyi makshuf vaznidadir:

Ohki, ishq ayladi shaydo meni,
Soldi junun ko‘yiga savdo meni.

Bu sohada uning an’analarini Ogahiy, Muqimiy kabi shoirlar davom ettirdilar. Shoir Habibiy ham ushbu vaznlarda o‘zining g‘azalini yaratgan.

S. bahrining solim shakli turkiy til tabiatiga begona.

Ad.: *Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Мухтасар. – Т., 1971; Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т., 1998; Ҳожиаҳмедов А. Навоий арузи нафосати. – Т., 2006; Муқимий. Сайланма. – Т., 2009.*

An.H., E.O.

SARYOMIY YUSUF (1845–1912, Sayram, Qozog‘iston) – shoir. Dastlabki ta’limni Sayram va Chimkent shaharlarida olgan. Shu davrlarda she’r yoza boshlagan. S.Y.ning taniqli shoir bo‘-lib etishuvida Toshkentda kechirgan yillari muhim ahamiyat kasb etadi. U “Beklarbegi” madrasasida tahsil olish b-n bir qatorda Toshkent adabiy muhitining yetakchi vakillari – Kamiy, Xislat, Shavkat, Muztarib kabilar b-n ijodiy hamkorlik qildi. Manbalarda shoirning Buxoro, Samarqand, Farg‘ona shaharlariga sayohat qilgani, u joylardagi adabiyot muhiblari b-n aloqada bo‘lgani haqida muxtasar aytiladi. Yana u Qo‘qon adabiy muhitida yuksak mavqega ega bo‘lgan shoir Muqimiy b-n Toshkentda uchrashgan. Inchunun, Muqimiyga xattotlik bo‘yicha ustozlik ham qiladi.

1914-y. Toshkentda shogirdi Tavallo tomonidan shoirning tarqoq holdagi she’rlari “Devon” shakliga keltirilgan. “Mavlaviy Yusuf Saryomiy” deb nomlanuvchi ushbu majmuadagi she’rlar an’anaviy devon tuzish qoidalariga asoslangan holda joylashtirilgan. “Devon”dan shoirning 12 adabiy janrda yozilgan she’rlari joy olgan, ya’ni Sharq poeziyasining g‘azal, ruboiy, qit’a, muxammas, musaddas, marsiya, fard, qasida, ta’rix kabi xilma-xil she’riy shakllardagi asarlar 4860 misrani tashkil etadi. Unda alifboning, deyarli, hamma harflari b-n tugallanadigan g‘azallar bor. G‘azallarning umumiy hajmi 130 ta . Shundan 115 tasi o‘zbek tilidadir.

Ma’lumki, XVI–XIX asrlarda yashab, ijod etgan shoirlarning aksariyati N. g‘azallariga taxmislar bog‘lash orqali ham ulug‘ mutafakkir ijodiga hurmat va izzatni bildirganlar, uni ustoz deb tan olganliklarini ifodalaganlar. S.Y. devonida g‘azaldan so‘ng salmoqli qismni tashkil etadigan she’riy shakl ham aynan muxammasdir. Shoir majmuasidagi 25 muxammasning 3 tasi N. g‘azallariga bog‘langan. U taxmis bog‘lar ekan, N. ilgari surgan g‘oyaviy mazmunni rivojlantiradi. Shoir taxmislari o‘z asosi bo‘lgan g‘azallar b-n g‘oyaviy-badiiy jihatdan birikib ketgan va tugal asarlarga aylangan.

Shoir devonining 71-72 va 132-133-sahifalarida “Muxammasi bar g‘azali Amir Navoiy” sarlavhalari ostida quyidagi biri 9 bandli, ikkinchisi 7 bandli taxmis mavjud:

Azalda Haq sani anvori zoting ayladi fosh,
Yuzungga zarracha sargashta bo‘ldi oy-u quyosh,
Erur sanga bu atoyi kamoli husn ma’osh,
Na yanglig‘ ayladi ta’siri orazing naqqosh,
Ki na’ting ayg‘oli aylar ko‘ngul til ila talosh.

Yoki:

Bir necha gulbargi qabo, yal-yali,
Aylag‘ali bizni ado, yal-yali,
Tuzmoq uchun savti navo, yal-yali,
Jam bo‘lung, maxliqo, yal-yali,
Bo‘ldi qiziq bazmi saro, yal-yali.

... Kecha ochib orazi tobonini,
Ravshan etub g‘ayr shabistonini, –
Rashk yoqib Yusufni jonini,
Xasta Navoiyni to‘kub qonini,
Qo‘llarig‘a qo‘ydi xino, yal-yali.

S.Y. N.ning mashhur “Shayx” radifli g‘azaliga bog‘lagan muxammasida, shayxning tashqi qiyofasiga uning ichki dunyosini qarama-qarshi qo‘yadi. Tashqaridan o‘zini qanchalik chiroyli qilib ko‘rsatmasin, uning ichki dunyosi botqoqqa bulg‘anganligini “lek botin xarob” deya alohida ta’kidlaydi. Shunday ekan, u qanday karomatlar ko‘rsatmasin, hatto oqayotgan suv ustida sajjoda yozib, namoz ijro qila olsa ham, “may ustidagi xascha”ga hisob qilinmasligini uqtiradi. Prof. A.Abdug‘afurov “Saryomiy Navoiy ta’sirida shayxlarning qora ishlarini kuchli tanqid qilish, ularning riyokorliklarini xalq oldida fosh etib tashlash, ishiga katta ahamiyat berganligini” alohida qayd etadi hamda “Saryomiy Navoiyning “Soda shayx” g‘azaliga o‘tgan to‘rt yuz yil mobaynida muxammas bog‘lagan yagona shoirdir”, deya unga yuqori baho beradi. Shoir muxammaslarida ham uning satirik g‘azallariga xos bo‘lgan poetik xususiyatlar, jumladan, u N. asos solgan satirik poetika maktabini davom ettirish b-n o‘z taxmislarida davrning eng asosiy salbiy

hodisalarini tanqid ostiga olib, bu janrga xos poetik imkoniyatlarni uslubiy rang-baranglik bilan boyitdi.

Ad.: *Девони Мавлавий Юсуф Сарёмий. ШҚМ. Инв № 118; Тожибоева М. Юсуф Сарёмий ҳаёти ва ижоди. – Т., 2005; Юсуф Сарёмий. Танланган асарлар. – Т., 2002; Абдуғафуров А. XIX асрнинг II ярми ўзбек сатирасида Навоий традициясининг баъзи масалаларига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1962. – №5; Ўзбек адабиёти. 4 жилдлик. 1-жилд. – Т., 1960; Каримов Ғ. Ўзбек адабиёти тарихи. 3-китоб. – Т., 1975; Зуфаров С. Шоир ва тарихчи // Адабий мерос, 1982, №4; Шодиев Э. Юсуф Сарёмий – зуллисонайн шоир // Адабий мерос, 1982. № 6.*

S.O‘.

SARI US-SAYR – “S.S.” dostonidagi to‘rtinchi iqlimdan keltirilgan musofir hikoyatining qahramoni shoh Jo‘naning tulpori. Benihoyat tez va uchqur bo‘lgan. Boshqa otlar bir haftada bosadigan yo‘lni bir kunda bosib o‘tar ekan. N. ushbu otni shunday ta’rif qilgan:

Bor edi bir zaminnavardi aning,
Bo‘lmayin barq hamnabardi aning.

Deb edi otini “Sari us-sayr”,
Qolibon sayrdin havo uza tayr.

Haftaliq yo‘lni boribon bir kun,
Yana bir onchani yana bir tun.

Jo‘na o‘z saroyida mehmon bo‘lgan bir musofirdan Taroz shahri va Mas’ud ta’rifini eshitgach, u yerga borishga qaror qiladi. Dehli b-n Taroz orasi yuz yog‘och (bir yog‘och taxminan 7 km)ni tashkil etar edi. Jo‘na Sari us-sayrga minadi va shunday uzoq masofani ikki kunda bosib o‘tib, Tarozga, Mas’ud saroyiga yetadi:

Beribon tavr-u vaz’ig‘a tag‘yir,
Sekridi markab uzra shohi dalir.
Ikki kun sa’y ila xirom etti,
Garchi yo‘l yuz yig‘och edi – yetti.

Ad.: *Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011.*

Q.E.

SATIH KOHIN – Eramizning VI asrida yashagan kohin. No‘shiravon (Yevropa tarixnavisligi an’anasida Xosrav I deb ataladi) b-n zamondosh bo‘lgan. Muhammad (s.a.v.) tug‘ilgan paytda uning oxirgi zamon payg‘ambari ekanini bashorat qilgani diniy manbalarda aytib o‘tilgan. Shuni qayd qilish lozimki, tarixiy tadqiqotlarda kohinlar otashparastlik ibodatxonasining ruhoniylari (jrets) sifatida tilga olinadi, ularning o‘sha davr jamiyatida katta mavqega ega bo‘lgani ta’kidlanadi. Lekin Sharq manbalarida ular haqidagi tasavvurlar faqat shu b-n cheklanmaydi. Bu asarlardagi ma’lumotlarga ko‘ra, islomga qadar arablar orasida kohinlarning g‘aybni bilishi va undan xabar berishiga ishonish mavjud bo‘lgan. Kohinlar juda katta olimlar, deb hisoblangan. Odamlar, shu jumladan, hukmdorlar ham bironbir mushkul ish boshlariga tushgan, qiyin muammolar paydo bo‘lganda kohinlarga murojaat qilganlar va ular nima maslahat bersa, shunga muvofiq ish tutganlar.

VI asrda kohinlarning eng mashhurlari ikkita bo‘lgan: Ishq va Satih. Satih Shom arablaridan edi. Manbalarda S.K. haqida hayratomuz ma’lumotlar bor. Jumladan, “Tarixi Muhammadiy”da uning tana tuzilishi o‘zgacha bo‘lgani haqida yozilgan: “Buning tan yaratilishi o‘zgacha bo‘lib, bosh suyagidan boshqa hech qanday ustuxoni yo‘q edi. Yig‘in majlislariga olib bormoqchi bo‘lsalar kiyiz yo‘rgagandek ani yo‘rgaklab, xurjunga solib olib borishar edilar. Bosh suyagidan boshqa jasadi yumshoq, shundoqqina go‘sht edi”.

N. “T.M.A.”da S.K. va uning bashoratiga batafsil to‘xtalib o‘tgan. Uning yozishicha, Muhammad (s.a.v.) tug‘ilgan kechada barcha otashkadalarning o‘tlari o‘chgan. Kisro tog‘ining o‘n

ikki kungurasi qulab tushgan. No‘shiravon S.K.ni o‘z qoshiga chorlab, bu ishlar nimaning alomati ekanini so‘ragan. S.K. bu kecha arablarning quraysh qabilasida bir bola tug‘ilishini, uning payg‘ambar bo‘lishi va dinni butun olamga yoyilishini, uning zamonida fors shohlarining davlati zavol topishini aytgan. No‘shiravon buning aniq vaqtini bilishni istagan. S.K.: “yiqilg‘on o‘n ikki kungura adadi bila sendin so‘ngra o‘n ikki kishi saltanat qilg‘aylar. Andin so‘ngra ul sohibi davlat barchag‘a mustavliy bo‘lg‘ay va millati olamni tutg‘ay”, – degan. Bu voqealarni bayon qilar ekan N. S.K.ning aytganlari chindan ham yuz berganini ta’kidlaydi: “Va andoqki, ul aytib erdi, bo‘ldi”.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи мулуки ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-. – Т., 2011; Alixon Sog‘uniy. Tarixi Muhammadiy. – T., 2021.*

Q.E., B.R.

SAFAR – yo‘lchilik, masofani bosib o‘tish, yo‘lda yurish. Irfoniy adabiyotda ham zohiriy S., ya’ni vujudla S. etmoqni, ham botiniy S., ya’ni haqiqiy ma’naviy-ruhiy S.ni tushunishgan. Ammo ular u-n ikki S. ham muhim hisoblangan. Zohiriy S.da Alloh taoloning Yaratuvchilik qudratini ko‘rish, ilm istashni maqsad qilishgan. Hatto payg‘ambar Muso (a.s.) ham o‘zidan olimroq solih qul – Xizr (a.s.)ni izlab, “Majma’-ul-bahrayn” – “Ikki dengiz uchrashgan joy”ni axtarib S.ga chiqqan edi. Ammo asosiy maqsad ruh S.i sanalgan. Ruh hayotiga S. Odam (a.s.) ning tavbasidan boshlandi. Chunki bani bashar foniy dunyoda o‘zini mehmon, asl makonga qaytish u-n o‘zlarini hamisha S.da deb bilishgan. N. asarlarida bu S. mazmun-mohiyati har doim eslatilgan. Va bu yo‘lni qay holda bosib o‘tish sir-sinoati, usul-u arkoni ko‘rsatilgan. M-n, “M.Q.”-da S. haqida shunday deydi: “Peshayi solikka pir zarur erkoniga odamizod vujud mulkidin xonapardozdur. Va adam kishvarig‘a safarsozdur. Bu safar maxsus sanga va manga emas yo xususiyat qilg‘onni kishi shoh-u gadog‘a demas. Har kim adam nihonxonasidin vujud anjumanig‘a qadam urubtur va bu baqosiz oromgohda bir nafas o‘lturubtur, yana qaytib asliy vatang‘a azm etmak kerak va qaydin kelibdur yana ul yon ketmak kerak. Besh kun bu dori fano tirikligiga masrur va davlatig‘a mag‘rur bo‘lmamoq kerakdur. O‘lumdin guzir yo‘qtur va hech kishiga ul mahlakida dastgir yo‘q. Bas, aning yarog‘ida bo‘lmoq zaruratdur va borur asbobin tuzatmak chorasiz suratdur. Ul safar asbobi solih a’moldur va hamida xisol”.

“M.Q.”dagi “Safar manofii zikrida” nomli maxsus faslda safarning manfaatlari bir-bir ochib beriladi: “Safar mahjurlarini matlubig‘a yetkurguvchi va mahrumlarni murod uyig‘a kivurguvchi va xomlarni pishirguvchi va taomlarni singurguvchi. Olam g‘aroyibidin bahra yetkurguvchi va ofarinish g‘aroyibig‘a ittilo’ berguvchi. Buzurgvorlar mazoroti fayzig‘a musharraf va mukarram bo‘lmoq safardin va fayzosor eranlar xizmatig‘a muazziz va muhtaram bo‘lmoq safardin. Solikning atvoriga andom berguvchi safar, ko‘ngulning har sari havo qilurig‘a orom berguvchi safar. Har kishvarning oroyishini va har manzilning osoyishini safar ahlidin so‘r va musofirdin ko‘r. Safar qilmag‘on orom farog‘atin qayda bilsun va g‘urbat chekmagan vatanda kom rafohiyatin ne nav’ ma’lum qilsun”.

Ma’lumki, tasavvuf Haq yo‘lchisining nafsi ila jangga otlangan qalb S.idir. Doston, ertak qahramonlari ham hamisha o‘zlikni tanish S.ida bo‘lib, yo‘l mashaqqatlarini turli homiy kuchlar, piri komillar, aziz avliyolar duolari barakotida yengib, murod-maqsadlariga yetadilar. Insonning ma’naviy S.ida har turli xavf, tahlika va ofatlar bor. Zotan, qalb sayohatida ham manzillarning o‘ziga xos belgilari, mayoq va bekatlari mavjud. N. “M.Q.”da ularni o‘n tamalga ajratib, quyidagicha nomlaydi: *Tavba, Zuhd, Tavakkul, Qanoat, Sabr, Tavozu’ va adab, Zikr, Tavajjuh, Rizo, Ishq*. Har bir S.ning o‘z qonun-qoidasi, karvonboshisi va yo‘l ozig‘i bor. Ruh S. yo‘l qorovuli bu yo‘lni bosib o‘tgan murshid bo‘lsa, yo‘l ozig‘i esa N. ta’kidlaganidek:

Tengri zikrikim, maloyikka g‘izoyi ruh erur,
Bu g‘izoni Haq yo‘lig‘a kirgan elga zod bil.

Tasavvuf ishq va irfon S.idir. “H.A.” dostonida esa bu yo‘lchilikning betakror tasvirini ko‘ramiz. Dostonning “Ko‘ngil ta’rifida...” deya nomlangan XVII bobi mana shu ma’naviy S.ning sharhiga bag‘ishlangan. “Nuh” surasidagi: “Holbuki U zot sizlarni bosqichma-bosqich yaratdi-ku (Nuh: 71/14)!” oyatiga asoslanib, mutasavviflar Alloh insonni yetti darajada yaratgan, degan fikrni ilgari surishadi. Shu tarzda tasavvufda atvori sab’ – yetti maqom: *nafs, qalb, ruh, sir, sirrus-sir, xafi, axfo* tushunchalari paydo bo‘lgan. “L.T.”dagi yetti vodiy ham ana shunga bir ishoradir. Qalb xastaligiga davo izlab qilingan S. juda qattiq va uzoq bo‘lishiga qaramay, komil murshid tajribasi b-n yetti vodiy: *talab, ishq, ma’rifat, istig‘no, tavhid, hayrat va fano*ga ajratilib, sayri sulukda izchillik va yengillik hosil qilingan. Qalbni Allohga yo‘naltirish S.ini mutasavviflar to‘rt turga bo‘lishgan: Sayri ilalloh – sayri sulukning ilk martabasi, safari avval. Solikning zikr yo‘li b-n Haq taologa uruj aylab, asmoulloh martabalaridan ismi haqiqiyga vosil bo‘lishidir. Sayri filloh – sayri sulukning ikkinchi martabasi. Sifatulloh ila sifatlanish, asmoulloh b-n mutahaqqiq va axloqulloh ila mutaxoliq bo‘lish, “ufuqi a’lo”ga yetishish, bashariy sifatlardan forig‘lik. Sayri ma’alloh – sulukning uchinchi martabasi. Solikning har martabada Alloh b-n sayrga yetishishi. Sayri anilloh – sayr-u sulukning to‘rt martabasidan oxirgisi. Bu sayr vahdatdan kasrat tomonga bo‘lgan sayrdir.

Fosiq men-u kofiri nihoni,
Ka’ba safari erur manga hayf.
O‘zni buki yaxshi ko‘rgazurmen,
Billahki, menga kaliso hayf.

Bu she’rda “Ka’ba safari”ga doir gap – vosita. Unga asoslanib, fosiqlik, ya’ni, zohiriy musulmonlik ortidagi nihoniy kofirlik fosh qilingan. Bunday riyokorlikning ildizi – xudparastlik: o‘zni yaxshi ko‘rgazmak balosi. Zunnun Misriy “Uch safar qildim va uch ilm kelturdum Avvalki safarda ilme keturdumkim, xos qabul qildi va om ham qabul qildi. Ikkinchi safarda ilme keturdumkim, xos qabul qildi va om qabul qilmadi. Uchunchi safarda ilme keturdumkim, na xos qabul qildi va ne om...”, deganmish. Bu ilmlarning avvali – tavba ilmi. Ikkinchisi, “tavakkal va muamolat va muhabbat”. Uchunchi, haqiqat ilmidurkim, elning ilm va aql toqatidin tashqari” bo‘lib, xaloyiq uni anglamaganligi tufayli inkor qilishgan ekan”. Tasavvufda mujarrad olami, ma’ni olami, g‘ayb olami, ruh olami, tafrid olami, sir olami kabi atamalar mavjud. Bularning barchasini botiniy olam tushunchasi o‘z ichiga oladi. Tashqi, ya’ni zohiriy dunyodan kechish – ana shu olamga S. qilish demak. Tark etgan – topadi. Topgan – tark ham etadi. Nafsini tanigan inson tom ma’noda qaydan kelgan-u, qayoqqa ketayotganini anglashga urinayotgan, ya’ni “Undan keldik, Unga qaytamiz”, oyati sirriga yetishni istayotgan yo‘lchi, huzuri ilohiy istab, olamlararo o‘z maskanini izlayotgan Sayyor. Uning S.i ma’naviy bo‘lib, qalbning g‘aybga S.idir.

N.ga ko‘ra, insonni komil etuvchi, ubudiyat qarzini ado qiluvchi amallarni Yaratgan ko‘rsatib bergan. M-n, “Nabiy shar’idin ayoq chiqarg‘an kajrav...” qit’asida:

Bu yo‘lda kimki nabiy shar’idin chiqardi qadam,
Yo‘l ozdi, chunki mute’ o‘ldi aqli johilig‘a.

Tavakkul ahliki chiqmas safarda jodadin,
Yaqindururki, yetar gom birla manzilig‘a, –

deya, manzilga eltuvchi qisqa yo‘ldan xabar beradi. Ilm insonda tavakkul, rizo, sabr, qanoat, shukr kabi ne’matlarni paydo etsa, haq e’tiqod iroda va jasorat sohibini dunyoga keltiradi. Komillikka qadam qo‘yish, o‘zlikni anglashga jahd etish Haq amrlariga bo‘ysunish, shariat yo‘lini mahkam tutish b-n amalga oshgan. “Miftoh ulqulub” muallifi ham: “Bir kimsaki Qur’ondan g‘ayri ila yo‘lini topmoq istasa, Alloh uni adashtiradi”, – deya odamzodning qalbi dini islom kaliti b-n ochilishini aytgan edi.

“N.M.”da ham valiylarning S. haqidagi hikmatlari beriladi: “Abu Ya’qub Nahrajuriy deb-

durki, “dunyo – dengiz, oxirat – uning sohili. Kemasi – taqvo. Odamlar safar qiluvchilardir”. Va ham ul debdurki, “odamlar ichida Allohni ko‘proq tanuvchi kishi unga hayrati ko‘proq bo‘lganidir”. S. so‘fiylar u-n basirat ochilishida juda muhim bo‘lgan. Shuning u-n ular S. qilishni o‘zlariga vazifa o‘laroq bilishgan. Abulhusayn Sirvoniyi Sag‘ir (q.s.)g‘a dedim: senga safar ne hojat, chun yurur holating yo‘qdur? Dedi: sen musulmonsen? Dedim: bale! Dedi: ul oyatni o‘qukim, “ularni quruqlik va dengizga chiqarib qo‘ydik”. Chun homil va ko‘targusi Uldur, bo‘la olurki, olatsiz ham ko‘targay. Naqshbandiyada “Safar dar vatan” – Mulk olamidan ma’naviy olamga S. qiymatlidir. Bunda ilm ul-yaqindan ayn ul-yaqin martabasiga ko‘tarilib, yomon fe’llardan hamida axloqqa yuksalinadi. Ko‘ngil sayri mulk olamidagi S.dan ancha mashaqqatli, tafakkur va tasavvur kabi poyonsiz. Tariqat ahli ma’naviy S.ni bir fe’ldan boshqa fe’lga, bir kechishdan boshqa bir kechishga o‘tish, deya anglagan.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Ҳаққул И. Тасаввуф ва шеърият. – Т., 1991.*

I.H.

SAFIY FAXRIDDIN ALI (1463, Sabzavor – 1533, Hirot) – adib, voiz. N. yaqinlaridan Husayn Voiz Koshifiyning o‘g‘li. N. “M.N.”da S.F.A.ning Hirotdan Samarqandga borib, Xoja Ubaydulloh suhbatiga yetishib, qaytgani haqida ma’lumot beradi. S.F.A. 1504-y.dan Hirotdagi Jome’ masjidida otasi o‘rnida va’zxonlik qilgan. 1531-y. Ubaydulloxon Hirotni qamal qilganda, S.F.A. bir yil mahbus bo‘ladi. Qamoqdan ozod bo‘lgach, Gargistonga ketadi, Safaviylarning hujumi vaqtida Hirotga qaytadi. S.dan “Rashahotu ayn ul-hayot” (“Hayot chashmasi tomchilari” (1503-04), “Kashf ul-asror” – otasining “Asrori Qosimiy” asariga yozgan sharhi, “Latoyif ut-tavoyif” (“Toifalarning latifalari”, 1532), “Lug‘atnoma”, “Mahmud va Ayoz” asarlari yetib kelgan.

S.F.A.ning “Latoyif ut-tavoyif” asari Kibriyo Qahhorova va Sotim Imomxo‘jayevlar tomonidan o‘zbek tiliga, S.Xovariy tomonidan esa rus tiliga tarjima qilinib, nashr ettirildi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Бартольд В.В. Мир Али Шир и политический жизнь. – М., 1920; Сафй. Латойиф ут-тавойиф. – Душанбе, 1968.*

S.G‘., E.O.

SAFIUDDIN MUHAMMAD – Abdurahmon Jomiyning ikkinchi o‘g‘li. S.M. 1475-y.da bir yoshida vafot etganida, N. Shayxim Suhayliy, Mavlono Sanoiy degan do‘stlari b-n birga ta’ziya bildirgani boradilar. N.ning hikoya qilishicha, ular Jomiy uyiga kelgach, hamdardlik bildirish va tasalli berish u-n so‘z topa olmaydilar, oraga sukut tushadi. Shu asnoda N. “Baqoyi hayoti shumo bodo” iborasi b-n ta’rix tushiradi va asta uzrxohlik ila Jomiyga uzatadi. Jomiy N.ga tahsinlar aytadi va uni she’rga solajagini bildiradi. Jomiy keyinchalik N. ta’rixini quyidagi she’rga soladi:

Guli bo‘stoni latofat Safiy
Chu shud so‘yi channat zi bog‘i fano,

Azize payi pursi ta’rih guft,
Qi, “Bodo baqoyi hayoti shumo”.

Tarj.: Latofat bo‘stonining guli Safiy, foniylik bog‘idan jannat tomon ketganda bir aziz kishi (ko‘ngul) so‘rash yo‘li bilan “Sizning hayotingiz baqosi bo‘lsun”, deb ta’rix aytdi.

Abjad hisobida “Bodo baqoyi hayoti shumo” iborasidan 880 hijriy yili (1475) chiqadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамсат ул-мутаҳаййирин. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011.*

S.G‘., M.A.

“SAFIH ZOLIM ILA BO‘LMA...” – N. ning “N.Sh.” devonidan o‘rin olgan qit’a:

Safih zolim ila bo‘lma xon uza hamdast,
Munosib o‘lmadi it chunki hamtabaqliqqa.
O‘zunga ablahi nodonni aylama hamroz,
Ki, yaxshi ermas eshak dog‘i hamsabaqliqqa.

“Safih zolim” – tentak va aqlsiz zolim. Oddiy tentak zolim bo‘lmasligi mumkin. Lekin zolim tentak telbaliklari tiyim bilmas yovuz maxluqdir. U, avvalo, o‘ziga nisbatan berahmlik ko‘rsatgan. Berahmlik tufayli mehrdan judo bo‘lgan. Bag‘ridagi shafqat va muruvvat hislarini yanchib tashlagan. Natijada, vijdon og‘rig‘i uni tark etib, iymon va diyonat boshqaruvchilik qudratini yo‘qotgan. Shuning u-n nodon va zolim. Bir so‘z b-n baholaganda, u inson qiyofasidagi qopag‘on it. N. ana shunday itlar b-n bir dasturxon boshida o‘tirmaslikka chaqirib: “Munosib o‘lmadi it chunki hamtabaqlikqa”, – deydi.

Ablah-u nodonlar b-n hamsuhbat bo‘lish qalbga bir jazo, ruhiy qiynoq emasmi? Aks holda ulug‘ shoir bobomiz: “O‘zungga ablah-u nodonni aylama hamroz”, – deya qat’iy fikrni o‘rtaga tashlamasdi. Shunga ko‘ra, nodon “eshakdan ham battar... nodonning ishi takabburlik, kekkayish, xayolida yuz xil behuda tashvish”. Eshakda “aql-farosat da’vosi yo‘q, bermasang och, bersang to‘q. Hatto shunday beozor maxluq bilan saboqdoshlik qilib bo‘lmaydi. Nega eshakdan-da tuban va yirtqich ablah-u nodonlar bilan hamfikr bo‘lmoq kerak?” degan bu savolga yuqoridagi qit’ada asosli javob qaytarilgandir.

Ad.: *Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2011; Ҳаққул И. Касби камол ўзни танишдир. – Т., 2021.*

I.H.

SAFOIY (XV asr) – shoir, andijonlik. N. “M.N.”da sodda yigit edi. Yaxshi she’rlar ijod qilib turar edi, deb yozadi. Andijonlik shoir Yusuf Badeiy b-n yaqin do‘st bo‘lganidan Samarqand sho‘xlari Yusuf Badeiyni Yusuf Safoiy deb hazillashib yurgan.

U N. Samarqandda ekanida suhbatida bo‘lgan. S. Samarqandda vafot etgan.

N. “M.N.”da S.ning bir forsiy baytini keltiradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

S.G‘.

“SAXIY ULDUR...” – N.ning “G‘.S.” devoniga kiritilgan qit’a:

Saxiy uldurki, nav’e bazl qilg‘ay,
Agar xud sufra ichra bo‘lsa noni.

Kim ul chodir ko‘mochidek yetishkay
Gado uyiga ko‘zlardin nihoniy.

Falakdek yo‘qki, avval jilva bergay
Quyoshning qursidek olamg‘a oni.

N. bir o‘rinda iymonli odam “o‘zi to‘q-u qo‘shni”si och bo‘lishiga chiday olmasligi xususida so‘zlab:

Anga dog‘i kerak yetursa nasib
Xonida gar kuloch-u xohi umoch, –

deydilar. Och va muhtojlar b-n dasturxonida borini baham ko‘rmoq – bu, diyonat va saxovat. Lekin bu ish qanday tarzda amalga oshirilmog‘i kerak? Qit’ada shu savolga javob bor. Unda ta’kidlanishicha, “saxiy uldurki”, u dasturxonida faqat noni bo‘lganida ham, shuni ehtiyojmand kishilarga baxshish qila oladi. Ammo saxovatning talabi shundangina iborat emas. Shuning u-n saxiy odam himmat va marhamatini ko‘z-ko‘z etmasdan faqir-u kambag‘al xonadoniga hadya yoki ehsonini olib kirmog‘i shart. Zotan:

Kim ul chodir ko‘mochidek yetishkay
Gado uyiga ko‘zlardin nihoniy.

“Chodir ko‘mochi” – chodir ustunining ust tomoniga qo‘yiladigan to‘garak charm. U yog‘och chodirni teshmasligi u-n ishlatiladi. Bu o‘xshatishda mantiq chuqur. Birinchidan, saxiy, gado qalb “chodiri”ning teshilishiga sira-sira imkon bermasligi lozim. Aksincha, uni bamisoli “ko‘moch” bo‘lib muhofaza qilishi kerak. Ikkinchidan, uning “gado uyiga” yetishmog‘i ko‘zlardin nihon kechmog‘i joiz. Ana shu nihoniy saxovatda insonning qalbi va qadrini asrab-avaylash bor. Qo‘rga ko‘mib pishirilgan non ham “ko‘moch” deyilgan. Mabodo, bu ma’no ham inobatga olinsa, unda saxiylik pinhona rizq yetkazuvchi mazmunini anglatadi. Lekin bunda “chodir” so‘zi o‘zining ma’no qimmatini boy beradi.

Erta tongda quyoshning ufqdan bosh ko‘tarishi – falakning tengsiz saxovati. Shu tufayli olamdan tun zulmati chekinadi. Borliq uyg‘onadi. Biroq bu hodisadan shoir mana bunday mantiq kashf qiladi:

Falakdek yo‘qki, avval jilva bergay
Quyoshning qursidek olamg‘a oni.

Demak, quyoshning gardish-la porlashi o‘z-o‘zicha sodir bo‘lmagan. U falakning “qilmishi”. Chunki falak “quyosh kursi”, ya’ni gardishi timsolida jilvagarlik qilib, olamga “avval jilva” zuhr etgan. Nihoniy saxovat sohiblari u-n esa bunaqa jilvakorlik tubdan yot bo‘lmog‘i kerak. Shuning u-n ham shoirning falak haqidagi “tanqidiy” fikrlari o‘quvchida e’tiroz tug‘dirmaydi, balki “chodir ko‘mochidek” bo‘lmoqni yoqlovchilarga ehtirom uyg‘otadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Ҳаққул И. Касби камол ўзни танишдир. – Т., 2021.*

I.H.

SAXO (SAXOVAT) (ar.) – saxiylik, qo‘li ochiqlik, jo‘mardlik; bazl, himmat, karam. Islom dinida, xususan, Qur’oni Karimda infoq-ehson qiluvchilarning ajri haqida ko‘p oyatlar nozil bo‘lgan. Hadisi shariflarda ham ehson, muruvvat, himmat, sadaqa kabilar maqtaladi, ularga tashviq qilinadi. Shunday muborak hadislardan birida Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) tomonidan: “Saxo – bir daraxt. Uning ildizlari jannatda, shoxlari dunyoga tushib turadi. Kimki uning shoxidan ushlasa, ildizlari (jannat) sari tortadi...”, – deyilsa, boshqa bir hadisi sharifda esa: “Beva va miskinga g‘amxo‘rlik qiluvchi kishi Alloh taolo yo‘lida sa’y-harakat qiluvchi yoki kechalari bilan toat-ibodat qilib, kunduzlari ro‘za tutuvchi kishi kabidir”, – deya, marhamat qilinadi. Shubhasiz, bu kabi hadisi shariflar insonlarni S. qilishga undaydi. Shu bois ham Sharq adabiyotida xayr va S. insonni ulug‘lab, ikki dunyoda aziz-u mukarram qilishi haqida alohida asarlar yozilgan.

Insoniy barkamollikning boshqa barcha sifatlari kabi, S. ham o‘tmish adabiyotimizda bosh axloqiy mavzulardan biri bo‘lib kelgan. Xususan, N. ijodida buning mukammal badiiy talqinlariga duch kelamiz. Eng muhimi, shoir S.ni bevosita iymon b-n, inson hayoti b-n bog‘lab, adabiy-badiiy yo‘sinda tushuntirib beradi. Zero, xalqimiz naqliga ko‘ra ham aqlning qadri odob b-n oshadi, boylik qadri – S. b-n. Saxiylik ezgulikni yuksaltiruvchi, do‘stlarning ko‘payishiga va muhabbatning ziyoda bo‘lishiga imkon yaratuvchi xususiyat bo‘lib, insoniyat u-n ulug‘ fazilatlardan biridir. Mudom xalq manfaatlari u-n qayg‘urgan N. ham S.ning el-yurt farovonligi u-n naqadar zarurligini anglagan holda buning targ‘ibi u-n o‘z zamondoshlarini misol qilib keltiradi. Jumladan, Sayyid Hasan Ardasherga atab yozgan masnaviysida uni vafoni kasb, saxoni o‘ziga doimiy odat qilib olganini, muruvvat turmush tarziga hamsafar bo‘lganini alohida ta’kidlab ko‘rsatadi:

Vafo anga – pesha, saxo anga – fan,
Vafovu saxo koni Sayyid Hasan...

Vafo azm aylarda bo‘lmish magar
Saxovu muruvvat anga hamsafar.

Shoir “S.H.A.”da esa rindlarning saxiyligidan bahs qiladi: “Va rindliq tavrida necha nima

alarga dast berib erdikim, bu toifaning ozig‘a muyassar bo‘lub erkan; biri saxoyi zotiykim, anda takalluf bo‘lmag‘aykim, bazl va ziyofat vaqtida oz va ko‘pning tafovuti ko‘runmag‘ay va o‘zidin elga ko‘p nima oz ham ko‘runmagay va eldin o‘ziga juzviy nima bag‘oyat ko‘p va kulliy ko‘runub, birga o‘n evaz yetkururning fikrida bo‘lg‘ay”.

“H.P.M.”da esa Pahlavon Muhammadni “... mijozida bazl-u saxo g‘olib va tab’ida shafqat--u raho mufrit”, – deya ta’riflaydi. Yoki “M.N.” tazkirasida Sulton Mas’ud Mirzoga ajratilgan fiqrada uning tabiatidan bahs eta turib, S. uning xulq-atvoriga aylanib ketgan, deydi: “Vafo va diljo‘yluq aning shiori, saxo va darveshxo‘yluq aning atvori”. Xuddi shuningdek, ulkan tarixchi, “Zafarnoma” kabi salmoqli asarning muallifi Sharafiddin Ali Yazdiy haqida ham “Va Mavlono himmat va bazl bobida ta’rifdin mustag‘niy erdilar” deydi. Demak, tilga olingan shaxsning himmati yuksak bo‘lganki, shoir uni juda oliy maqtovlar b-n tilga oladi. Alloh taolo o‘z kalomida qiyinchilik kunlarida sabr qilgan, ibodatlarda qoim bo‘lgan, muhtojlarga yordam bergan va chiroyli xulqlarini saqlab qolganlarga oxirat saodatini va’da qiladi: “Parvardigorlarining roziligini istab, (turli mashaqqatlarga) sabr qilib, namozlarini barkamol ado etgan va Biz rizq qilib bergan narsalardan xufyona va oshkora ehson qilgan hamda yomonlikka yaxshilik qaytaradigan zotlar, aynan o‘shalar uchun dunyo oqibati (jannat) bordir” (Ra’d surasi, 22-oyat). N. bir qit’asida ehson qilishini aytib, ehson qilgan odamni er va aytmay ehson qilgan odamni esa chinakam er, deydi. Ammo:

Ne deb, ne bersa bilgil ani xotun,
Debon bermasni xotundin dag‘i kam.

Agar kishi ehson qilishini aytmasa ham, ehson bermasa ham u xotindir. Ehson qilishini aytib, lekin ehson bermasa, u odam xotindan ham battardir. Qit’ada N. xotinlarni kamsitayotgani yo‘q. Odatda, xotinlar ro‘zg‘orim deydigan va qattiqroq bo‘ladi. Qolaversa, Sharqda erkakni xotinga tenglashtirish o‘ziga xos tahqirlash sanalgani u-n xasis, baxil odam xotinga tenglashtirilyapti. N. boshqa bir qit’asida esa shoir hukmdorlarni ogohlikka chaqiradi: saltanatning doimiyligini, barqarorligini ta’minlovchi omillardan biri S. ekanligini qat’iy ta’kidlaydi:

Kim istasa saltanat, saxodur anga shart,
Har va’daki aylasa vafodur anga shart.
Kim faqr talab qilsa, fanodur anga shart,
Ollig‘a nekim kelsa, rizodur anga shart.

Diqqat qilinsa, N.ning S. b-n bog‘liq ko‘p fikr-qarashlari do‘sti – Sulton Husayn b-n bog‘langan. Shoir, deyarli, bir nechta asarlarida do‘stining muruvvatda, himmatda tengsizligini ulug‘laydigan satrlar bitgan. Ayniqsa, uning Sulton Husaynni “S. havosining abri guharbori” deb atashi e’tiborga loyiq. Xususan, shohning saxiyligini quyoshning olamga zarfishon – nur sochishiga muqoyasa etadi. Ya’ni oliyhimmat shoh S. b-n qo‘l ochganida, olamga “zarfishonlig‘” qilayotgan quyoshning” sarpanjalari minnatini” tortmaydi. Quyosh nurlari ham uning S.i oldida qadrsiz bo‘lib qoladi.

Chun saxovat ilgi ochsang,
dahr chekmas zarraye
Zarfishonlig‘da quyosh sarpanjasining minnatin.

N.ning “H.A.” dostonida ham Sulton Husayn saxiyligini ta’riflab yozganlari oldingi satrlarning uzviy davomidek taassurot uyg‘otadi: bu o‘rinda ham ehtiyojmandlarga mol ulashgan shohning qo‘llari falakda zarrin nurlarini sochuvchi oftobga qiyoslangan, hatto shunchalik ko‘p oltin-kumush tarqatganidan ilgi (qo‘li) ganjrez – oltin xazina to‘kuvchi narsaga aylanib qolgandek.

Ilgi saxovatdin o‘lub zarfishon,
Lutfi talattuf bila gavharfishon.

Ko‘ngli bilik gavharidin ganjxez,
Ilgi saxovat kafidin ganjrez.

“S.I.” dostonida esa Sulton Husaynni karamparvarlikda tog‘-u tosh ichida yashiringan konga o‘xshatadi. Davomidagi qaydlardan shohning har vaqt maqsadi xazinasidan elga ehsonlar ulashish bo‘lgani anglashiladi.

Saxosi chu zohir bo‘lub bahr-u kon,
Tutub tufrog‘-u tosh ichinda makon...

Qo‘lin bahr ila kon misoli degil,
Saxodin alar tavri xoli degil...

Ushatmog‘ta zoyi’ qilib ranjini,
Murodi saxo aylamak ganjini.

Chunonchi, “L.M.” asarida ham N. Sulton Husayn S.ini quyoshga o‘xshatadi va tabiatida shijoat borligi u-n dunyo unga itoat etsa, ajab emas, deydi. Tarixga boqqanimizda ham, Husayn Boyqaro juda ko‘p jang-u jadal qilgan va shijoatli odam bo‘lgan. Bobur “Boburnomada” temuriylardan hech kim u kabi ko‘p qilich chopmaganini alohida ta’kidlaydi. Ulug‘ mutafakkir quyidagi misralarida ham Sulton Husaynning jasur va abjirligi tufayli el-yurt dushman hujumidan omondaligi-yu, himmat-u S.i sababidan shukronada ekanligini eslatib qo‘yadi:

Ulki amniyat vujudidindurur,
Xalq shokir bazlu judidindurur.

N. katta mahorat b-n saxiyligi va donoligini ta’riflagan obrazlardan biri Iskandar edi. “S.I.” dostonida uning siyrati b-n bog‘liq chizgilarda behad muruvvatli bo‘lgani anglashiladi. Shuningdek, asarda bir qator hakimlar va faylasuflar timsoliga duch kelamiz. Ular Iskandarga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatish hamda unga nasihatnomalar bitish b-n e’tibor qozonadi va keyingi podsholar u-n yo‘riqnomalar yozgandek taassurot uyg‘otadi. Iskandarga “Xiradnoma” bitgan yetti donishmanddan biri Hurmus shohga aynan S. shartlarini tushuntiradi. “Shoh xalqning e’tiborini qozonishi u-n S.li bo‘lmog‘i, lekin maqtanish u-n S. qilmasligi, yengiltaklik bilan qilingan sarfu xarajatlar ham S.ga kirmasligi, birov tilagan, hojat so‘ragan paytda S. qilishni ham “saxo ahli” S. demasligini aytadi. S.ni basirat ko‘zi b-n nazar qilib, joyiga va tartibiga ko‘ra sarflash kerak. Avvalo, askarlarni so‘ngra ishchi mardikorlarni, so‘ngra xalqqa ozmi-ko‘pmi in’om mukofot berishi lozim:

Berur luqma angakim, och erur,
Olur ko‘nglin oningki – muhtoj erur.

Mubohot ila o‘zin etmas aziz,
Agar yuz tuman bersa, gar bir pashiz.

Ne sarf aylar o‘lsang, bu nav’ ayla sarf
Ki, bu sarf erur asramoqtin shigarf.

“H.A.” dostonining 20 maqolatidan biri – beshinchisi aynan shu karam (yaxshilik, oliyjanoblik, ehson, marhamat, saxiylik) vasfi va S. ta’rifiga bag‘ishlangan. “Karam” va “S.”, o‘zaro ma’nodosh so‘zlar bo‘lgani u-n ham N. bu so‘zlarni yonma-yon yoxud birgalikda qo‘llaydi.. Ulug‘ shoir maqolatda karam va S. qilgan kishini maqtaydi, bu ikki xislatga tegishli bo‘lgan shart va vazifalarni, to‘g‘ri va noto‘g‘ri jihatlarini ko‘rsatib, foydali tavsiyalarni berish b-n birga, karamli va saxiy kishini, avvalo, shukr qilishga chaqiradi:

Buki sanga Tengri ato ayladi,
Qism karam birla saxo ayladi.

Har sari mo‘ jismingga bir til bo‘lub,
Bo‘lmas aning shukr ila uzrin qo‘lub.

Judu saxovat chog‘i buxl etmagil,
Shukr zamoni dog‘i buxl etmagil.

Ya’ni, senga Tangri ato qilgan bu ikki narsa ikki qism – karam va saxiylikka bo‘linadi. Ta-

nangdagi har bir tuk bir til bo‘lib, Xudoga shukr va minnatdorchilik bildirganda ham hammasini ayta olmaydi. Ehson va S. ko‘rsatish vaqtida baxillik qilma, Xudoga shukr bildirish chog‘ida ham tanti bo‘l!

Darhaqiqat N. nazdida, S. ham karam ham Alloh tarafidan in’om etilgan ulug‘ ne’matlar. Modomiki, bu ikki ne’matni Allohning o‘zi bandasiga ravo ko‘ribdimi, buning shukronasi bo‘lishi, ya’ni baxillik qilmaslik kerak. Alloh taolo Qur’oni Karimda: “Alloh yo‘lida mollarini ehson qiluvchilar (savobining) misoli go‘yo bir donga o‘xshaydiki, u har bir boshog‘ida 100 tadan doni bo‘lgan 7 ta boshoqni undirib chiqaradi. Alloh xohlagan kishilarga (savobini) yanada ko‘paytirib beradi. Alloh (karami) keng va bilimdon zotdir” (Qur’oni Karim. “Baqara” surasi, 261-oyat) deb marahmat qilgan. Alloh taolo bu misol b-n 1 ta xayrli ish u-n 1 ta emas, to 700 tagacha va undan ortiq savob ato etishi mumkinligini bildirmoqda.

Biroq S. shunday nozik narsaki, kishi hushyor bo‘lmasa, saxiylik deb qilgan amali baxillik hisobiga o‘tib ketishi hech gap emas. Shoir S.ni yaltiroq dur, ya’ni duri serobga o‘xshatadi. O‘quvchiga uni xor qilib, baxillar safiga o‘tib qolmaslikni uqtiradi. N.ning fikricha, saxiylik deb, isrofga, riyoga yo‘l qo‘yishning baxillikdan hech farqi yo‘q:

Necha saxo ashrafi avsofdur,
Mufrit agar aylasang, isrofdur.

Binobarin, N.ning nazarida, oltin – ko‘p aziz narsa, lekin undan oyoqni band qilish u-n kishan yasalgan bo‘lsa, kimga keragi bor?!

Shu tariqa shoir hayotda o‘zini saxiy sanagan 1-toifani ta’riflab, ular yo‘lining xatoligini ko‘rsatib beradi. O‘zini saxiy sanagan 2-toifa ham bor. Ular isrofchi ham emas. Lekin bundaylar o‘zi shundoq ham qorni to‘q bo‘lganlarga dasturxon yozadilar, to‘nga zor, yupun-yalang‘ochlar qolib, boylarga chopon kiydiradi, yuz yilqisi borga – ot, yuz ziragi borga – kumush taqdim etadi:

Oni dog‘i dema saxokim, kishi,
Nechaki isrof emasdur ishi...

Yoyar anga supraki, ul och emas,
Berur anga to‘nki, yalang‘och emas.

Ot anga tortarki, yuz ilqisi bor,
Sim anga berurki, yuz ilg‘isi bor.

Bundaylar xuddi la’l koni bo‘lmish Badaxshonga – la’l, ziraning makoni bo‘lmish – Kirmonga zira yuborgandek, quyosh nuriga foydasi tegsin deb, kunduz kuni sham yoqqandek, quribqaqshab yotgan bog‘ga yog‘may, suvini shundoq ham qor bag‘rida yotgan toqqa yoki dengizga to‘kkan bulutdek ish qiladi. Demak, och qolib, to‘qqa, muhtoj qolib, boyga qayishadigan saxiyning himmati, himmat emas!

Isrofgarning, och qolib to‘qqa berganning S.i qanchalik bema’ni bo‘lsa, N.ga ko‘ra, birovga berish u-n boshqadan olishga mukkasidan ketgan S.chi ham jamiyatning bir marazi hisoblanadi:

Olmoq erur qasd anga bermak g‘araz,
Bu ham ul ikkidek erur bir maraz.

Chunki bu yo‘l b-n mol-mulk yig‘ib, elga berish saxiylik hisobiga o‘tmaydi, uning olishi – koni ziyon, lekin, qiziqki, bermagidan ham biron foyda yo‘q.

Agar uning qo‘lida biror narsa bo‘lsa-yu, bir qo‘li qisqaning unga muhtojligini bilsa, undan borini ayamaydi. Uning saxiyligi shundaki, dengizdek bir boylikka ko‘zi tushsa ham, undan biror tomchi xomtama bo‘lmaydi, qo‘lida malhami bo‘lsa-yu, yara ko‘rsa, uni ayab o‘tirmaydi. Muhimi, muhtojni ko‘rsa, u hali so‘rab ulgurmasidan o‘zida borini unga beradi. Chunki bunday kishining ongida bir zo‘r tushuncha bor – u qo‘lidagi molni o‘ziniki emas, Allohniki deb biladi va shuning u-n uning eng kerakli o‘rnida ishlatilishini zarurat hisoblaydi, boshqaning ahvolini oshufta ko‘rsa, bor-budini berib bo‘lsa ham, uning dardiga malham bo‘ladi:

Ulcha ko‘rar ilgida haq molini,
Anglag‘ach oshufta birov holini.

Sarf qilur sud ila sarmoyasin,
Toki qilur hosil aning voyasin.

Yana bir muhim jihat, N. bunday odam yaxshiligini sira-sira minnat qilmaydi, deb alohida ta’kidlaydi. Zotan, yaxshilikni, infoq-ehsonni minnat qilish, Qur’oni Karimda ham mazammat qilingan.

M-n, “U zotlarki, Xudo yo‘lida mollarini sarflaydilar, g‘ariblarga mollarini beradilar orqasidan minnat qilmaydilar, g‘ariblarga aziyat ham bermaydilar” (Baqara, 262-oyat).

“Ey mo‘minlar, molini riyokorlik bilan nafaqa qiladiganlar kabi sadaqalaringizning ajrini minnat va aziyat bilan botil qilmanglar. Vaholanki, ular (riyo bilan nafaqa qiluvchilar) Xudoga va oxiratga ishonmaydilar” (Baqara, 264-oyat). Yuqoridagi mulohazalardan keyin shoir S. ko‘chasida adashib yurgan, baxillikdan beshbattar ishlarini ham saxiylik hisoblaydigan millatdoshlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat etadi va aytadiki, bugun gulni g‘unchadek tugma, chunki qiyomat kuni, baribir, uni ochishga to‘g‘ri keladi, axir, sadaf ming baxillik qilgani b-n, uning ko‘ksini yorib, ichidagi durni oladilar-ku! Charx oltindek porloq quyoshni berkitgani u-n ham kechqurun jahon uning yuzini qora qilib tashlaydi. Quyoshning o‘zini oling. U kunduzi yulduzlar tangachalarini berkitib turgani u-n osmon kechga borib uning o‘zini yerga ko‘madi. Shunday ekanmi, bu dunyoda xasislik qilishning hech keragi yo‘q, hatto ko‘milgan xazinani qo‘riqlab yotgan ajdaho bo‘lsang ham, deydi shoir, bilgilki, bu asraganning ganji xun bahosi bo‘lib qolishi mumkin... Falak Bahromi bir kuni kutilmaganda kelib, seni qatl etadi-yu, berkitganing boyligingni oladi. Shuning u-n o‘z qoningga qo‘l yuvishning, o‘z joningga qasd qilishning ne ma’nosi bor? Shunday ekan, xazinang eshigini och, boyliklaringni olib soch-u, lekin o‘z o‘rniga soch. Demak, boylikni o‘z o‘rniga mos ravishda sarflashgina – S. hisoblanadi. Shu sabab, toki tirik ekansan, S. urug‘ini ek. Chunki bugun nima eksang, ertaga – tongla, ya’ni, qiyomat kuni o‘sha ekkaningni o‘rasan:

Ne bukun ekilsa, bu maqbul erur,
Kim anga tongla kuni mahsul erur.

Lekin gap nimani ekishda. Ekinning ham turi ko‘p. Eng yaxshi ekin esa – judu S.ning eng zo‘ri esa – tama qilmaslik. Xo‘sh, dunyodagi yuksak karamli, ya’ni S.li zot kim? Karam duriga daryo bo‘lgan bu zotni odamlar “Asadulloh” der edilar. Otiga saxovu karam xatm bo‘lgan bu zot: “Karam diram, ya’ni pul berish emas, balki talab nimaligini bilmaslik, boshqacha aytganda, birovning qo‘lida pul ko‘rsa, undan tama’ qilmaslikdir”, – deb aytgan:

Xatm o‘lub otig‘a saxovu karam,
Dedi: “Karam – bermak emasdur diram.

Anda karamdurki, talab bilmagay,
Kimda diram bilsa, tama’ qilmagay”.

Ana shu tasvirlardan keyin N. mashhur Hotami Toy va o‘tinchi chol haqidagi rivoyatni keltiradi. Unga ko‘ra, himmat va saxo ahlig‘a peshvo Hotami Toy birovning minnatini tortgandan ko‘ra, o‘tin terib, topgan va maoshiga kun ko‘rishni a’lo bilgan cholning himmatini ko‘rub, lol bo‘ladi va hikoyat shunday yakunladi:

Bazldakim lutfni qilmas xato,
Zohir etar bir yo‘li ikki ato.

S. ko‘rsatgan kishi muomalada ham xato qilmasa, u bir yo‘la ikkita in’om bergan bo‘ladi.

N. S. haqidagi fikr-qarashlarini, deyarli, barcha asarlarida u yoki bu tarzda ifoda etar ekan, ma’lum bo‘ladiki, mutafakkir bu xislatga ega bo‘lishni juda zarur hisoblagan va hamisha o‘zi ham aytganlariga amal qilib yashash payida bo‘lgan. Tabiiyki, N.ning yaxshi xulqlardan so‘z yurituvchi “M.Q.” asarida S., karam haqida ko‘plab ohorli fikrlarga duch kelish mumkin. Mazkur asarning 93-tanbehida: “Har g‘aniyki tirikligida

ehsonidin ko‘ngullarni shod qilmag‘ay, o‘lganidin so‘ng ani kimsa duo bila yod qilmag‘ay. Ehson tiriklikda yaxshi otdur, o‘lgandin so‘ng do‘zax azobidin najot”, – degan hushyorlikka chorlovchi mulohazalar bor. Mazkur jumlalarning mazmunini yanada teranlashtiruvchi va o‘ziga xos ma’no tashuvchi quyidagi qit’a alohida e’tiborga molik:

Kishida barcha axloqi hamida, Chu jam’
o‘ldi qo‘yarlar otin ehson.
Biri andin saxodur, bir muruvvat, Bular gar
yo‘qtur, inson ermas inson”, –

deydi. Qit’ada muhim fikr aytilmoqda. Bir kishida barcha yaxshi xulqlar jamlansa, uning otini ehson, deb ataydilar. Ehsonga aloqador ikki xususiyat borki, biri S., biri muruvvat. Agar shu ikkisi kimda bo‘lmasa, unday kishi inson emas.

N.ning S. haqidagi barcha fikr-qarashlarining qaymog‘i “M.Q.”ning “S. va himmat bobida” deb nomlangan 11-tanbehida bayon etilgan: Unda, jumladan, shunday deyiladi: “Saxovat insoniyat bog‘ining serhosil daraxti, balki u daraxtning foydali mevasidir. Saxovat odamiylik mulkining mavj urib turgan dengizi, balki u sermavj dengizning bebaho gavharidir. Saxovatsiz odam – yomg‘irsiz bahor bulutiga va hidi yo‘q mushki anbarga o‘xshaydi.

Keyingi satrlarda N. “S. faqat himmat ahlida bo‘ladi”, deb himmatni ta’riflaydi. Uningcha, “... bu ulug‘ sifat pokiza kishilarga xos bo‘lib, “odam bir badan bo‘lsa, himmat uning joni”dir. Himmatlilardan olam ahli uchun yuz ming sharaf va shukuh yetishadi. Himmatsiz kishi – er sonida emas. Jonsiz badanni hech kim tirik demas.

Oliyhimmat odam – balandparvoz lochin. Behimmat esa sichqon ovlovchi kalxatdir. N. keyingi satrlarida himmat ahlining darajasi balandligini ammo “saxiylikning darajasi bir necha barobar yuksak” ekani va qaysi o‘rinda, qanday holatlarda S. qilish lozimligini, S.ning martabalari(darajalari) borligini ta’kidlaydi: “Isrof qilish saxovat emas, o‘rinsiz sovurishni aqlli kishilar saxiylik demaydilar. Halol molni kuydirganni devona deydilar, yorug‘ joyda sham yoqqanni aqldan begona deydilar. Maqtanish uchun mol bermoq – o‘zini o‘zi ko‘z-ko‘z qilmoq va bu bilan o‘zini saxiy deb atash behayolik. Kimki xalqqa ko‘rsatib ehson qilsa, u – pastkash, saxiy emas. Tilagandan so‘ng berish ham saxovatdan emas, qistov natijasida bergandan ko‘ra bermagan yaxshiroqdir. Bitta kulchani ikkiga bo‘lib, yarmini och odamga berganni saxiy deb, o‘zi yemay hammasini muhtoj odamga berganni axiy (oshna, birodar, do‘st) deb bilgin”.

N. mazkur kitobining 12-tanbehida esa S.ni yanada qisqa, ammo quyma jumlalarda bayon qilib beradi: “Hunarlarni (yaxshilarni) topmoq yedirmoqdir va ayblarni yopmoq esa kiydirmoqdir.

N. avliyolarning saxiyliklarini ayrim shayxlar misolida yoki ularning hikmatli so‘zlari orqali ko‘rsatib o‘tadi. Jumladan, “N.M.” asarida yozadiki: “... Ray mashoyixi debdurlarki, Abulqosimda to‘rt nima jam’ erdiki, o‘zgada yo‘q erdi. Jamol va mol va zuhdi barkamol va Saxovati tamom”. Shayx Abulabbos Hamza bin Muhammadning esa “...vara’da komil va mustajobud da’va va azim Saxovati bor”ligini ta’kidlaydi. Shayx Abu Abdulloh Solimiydan so‘rashgan ekan: “Avliyoullohni xalq orasida ne osor-u alomot bila tanig‘aylar? “Dedikim: takallumning latofati bila va xulqning xublig‘i bila va yuzning tozalig‘i bila, nafsning saxosi bila va e’tirozning qillati va uzrning qabuli bilaki, harkim, uzr etsa qabul qilg‘ay va shafqat tamomlig‘i bila barcha elga xoh solih va xoh tolih”, deb javob bergan ekan. Yana bir muhim nuqta shuki, N. S.ning shartlarini faqat moddiylik b-n bog‘lamaydi, balki ma’naviy taraflariga ko‘ra ham uning belgilarini ko‘rsatib o‘tadi. Tabassum qilish, mayinlik b-n qarash ham S.ning eng kattasi, eng bebahosidir:

Kular yuz bilan ato, saxo ustiga saxo.

N.ning mazkur tazkirasidan ham S.ning ma’naviy jihatlari borligini bilib olamiz. Bu borada Shayx Imom Ahmad G‘azzoliyning muridi

Shayx Ziyouddin Abunnajib Abdulqohir Suhravardiy “Adab ul-muridin” kitobida shunday degan ekan: “... agar faqirlik ko‘ngul rizosi bilan bog‘liq bo‘lsa, boylikdan afzalligiga ittifoq qilishgan. Bir kishi “Beruvchi qo‘l oluvchi qo‘ldan yaxshiroqdir” – deb, Payg‘ambar (a.s.)ning so‘zini dalil keltirsa, unga aytiladi: “Beruvchi qo‘l o‘zida borini berish bilan fazilatga ega bo‘ladi. Oluvchi qo‘l borini hosil qilish bilan nuqson topadi”. Ammo S. va ehsonning afzalligi faqirlikning fazilatiga dalildir. Kimki boylik, infoq-ehsonni faqirlikdan afzal desa, go‘yo tavba sharofatidan gunohni toatdan afzal bilgan odamga o‘xshaydi”. Mutafakkir shoir asarlarida eng S.li va himmatli inson kim, degan savolga ham javob berib o‘tadi. Ma’lumki, Rasulullo (s.a.v.) Me’roj tunida Alloh taolodan ummat gunohining afv etilishini so‘ragan va maqsadlari hosil bo‘lgan edi. Rasulullo (s.a.v.)ning Allohdan ummat gunohini tilaganliklarini N. eng ulug‘ himmat va S. ekanligini teran va samimiy misralar orqali bayon qilib beradi. U garchi na’tlarida bu mavzuga to‘xtalgan bo‘lsa ham, “L.T.”ning “Me’roj” haqidagi bobida mazkur mavzuni nisbatan kengroq va asosliroq ochib beradi:

Tengri lutfi uzrxohin istadi,
Osiy ummatning gunohin istadi.
Oncha bazl g‘olib-u lutfi amim,
Oncha lutfi mufrit-u xulqi karim...

Ma’lumki, bashariyat, xususan, musulmonlar eng ulug‘, eng S.li va eng himmatli inson sifatida Muhammad (s.a.v.)ni e’tirof etishadi. N. aynan she’rlarida, xususan, “H.A.”dan o‘rin olgan na’tlarida bu haqda yorqinroq va batafsilroq to‘xtalib o‘tadi:

Garchi tijoratqa bo‘lub moyasanj,
Kim qaro tufroqdin oldinda ganj,

Ko‘z tutib el naf’u basorat anga,
Ummat etib sudu tijorat anga.

Xullas, S., infoq va ehson har bir odam va har bir jamiyat u-n eng muhim fazilatlardan hisoblanib, N. o‘z hayoti hamda asarlari b-n uni targ‘ib-u tashviq qilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Ғиёсиддин Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Т., 2015; Навоий асарларининг луғати. Тузувчилар: Порсо Шамсиев, С.Иброҳимова. – Т., 1972.*

S.R., B.R.

SA’D I – baxt, tole’; yaxshilik ma’nolaridagi arabiy so‘z. S. lafzi ko‘proq boshqa so‘zlar b-n birikma holida keladi: “axtari sa’d” (baxt yulduzi), “sa’di akbar” (Yupiter (Mushtariy) sayyorasi), “sa’d axtar” (qutlug‘ yulduz; baxt yulduzi), “sa’di kavkab, kavkabi sa’d” – (qutlug‘ yulduz).

Chu baxt axtari Sa’d o‘lmadi, ne sud, eykim,
Sipehr zijini hal qilg‘ali rasad qilding.

Navoiy, yor ne javr etsa, jong‘a minnat qo‘y,
Azalda chunki bu da’voni to abad qilding.

“B.V.” devonidagi na’t g‘azallaridan birida “Nubuvvat osmonida baxt yulduzlari ko‘p bo‘lgani, ammo Rasulullohni oyga o‘xshatib” ta’rif-tavsif etadi:

Qani sening kibi mahbubi oqibat mahmud,
Ki zilli otifating bo‘lsun el uza mamdud.

Nubuvvat avjida ko‘p tole’ o‘ldi kavkabi sa’d,
Biri sen oydek emas erdi axtari mas’ud.

Husayn Boyqaro va Xadichabegimning ikki o‘g‘li – Shoh G‘arib Mirzo va Muzaffar Mirzolarni ham “ikki sa’d axtar” deya ta’riflaydi: *Oy-u kun yo‘q agarchi monanding, Ikki sa’d axtar ikki farzanding.*

Shuningdek, “B.B.” devonida “S.” nomli mashhur muammosi keltiriladi:

Bu gulshan ichraki yo‘qtur baqo guliga sabot,
Ajab saodat erur chiqsa yaxshiliq bila ot.

Ad.: *Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик, 3-жилд. – Т., 2011.*

Z.R.

SA’D II – “S.S.” dostoni qahramoni. U haqidagi hikoyat dushanba kuni yashil qasrda 3-iqlimdan kelgan musofir tomonidan aytiladi. S. Misrda boyligi shohnikiga barobar, himmatli bir Xojaning o‘g‘lidir. Uning husni jamoli, odobi va kamoli Yusuf (a.s.)ga o‘xshatiladi. Ilmda ham tengsiz sanalardi. S.ning kattakon bir mehmonxonasi bo‘lib, u yerda turli diyorlardan mehmonlar kutib olinar, izzat-ikrom ko‘rsatilar va tavoze’ ila uzoq suhbatlashib, ilmini yanada oshirardi. Hatto S. sehr-nayrang, kimyo ilmlarini ham puxta o‘rgangan. Bir kuni yashil kiyimli ikki musofir ham keladi va S.ning muomalasiga asir bo‘lib, qulga aylanadi. Bu ikki musofirning nega yashil rang libos kiyishgani va qaysi yurtdan kelishganini so‘raganida shunday javob berishadi:

Dedilar: “Kishvari durur dilkash,
Oti ham Shahrisabz erur ham Kash.

Xizr monand sabzadin rangi,
Sabzasi suyi ko‘zgusi zangi.

Shahrisabz o‘ldi bizga chun mulkat,
Yo‘q ajab gar yashil durur kisvat”.

Musofirlar Kitvar shahridagi g‘aroyibotlarni so‘zlab berishadi. Ayniqsa, tush va donishmand qariya haqidagi xabarlardan so‘ng S. behush bo‘ladi. Tush ko‘riladigan butxona (dayr) butun aql-hushini egallab oladi. Alaloqibat, otasi shu dayrga safar qilishiga rozi bo‘ladi. Ikki musofir unga hamroh bo‘lishadi. S.ga ham quyidagicha tush nasib etadi:

Kim: “nasibing sening pari bo‘lmish
Ki, yuzi mehri xovariy bo‘lmish!”

Yana bir biym birla qildi nido,
Etti maqsudini bu yanglig‘ ado.

Kim: “seni dev qilg‘usidur asir,
Solib ikki ayog‘inga zanjir”.

Qilibon hayrat ul g‘arobatdin,
Seskanib qo‘pti bu mahobatdin.

Shundan so‘ng piri komilni izlab, g‘orga borishadi. G‘orda Faylaqus hakim b-n ko‘rishadi va tushining ta’birini so‘raydi. Faylaqus hakim parining Shahrisabzdan ekanligi, Qatron dev qo‘riqlashi, u yerdagi uch sehrli qal’ani bir-bir bosib o‘tish sirlarini aytib kuzatadi. S. saroydagi barcha sehr-jodularni, hiylalarni oshkor etib, mahv etadi. Shoh uni farzand, o‘zini ota deya e’lon qiladi. Va tushidagi pariga uylanadi. Ko‘p o‘tmay shoh vafot etib, S. shoh etib saylanadi. Ikki yashil libosli musofirni ikki vazir etib tayinlaydi. Shoh Bahromga hikoyat aytib bergan musofir S.ning avlodlaridan ekanini bilgach, Bahrom uni Shahrisabzga hokim etib tayinlaydi. N. dostonda S. obraziga ham ma’lum ma’naviy vazifa yuklagan. Uning bosib o‘tgan yo‘llari nafs tarbiyasidagi usullardan biridir.

Ad.: *Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011.*

Z.R.

SA’DI AKBAR – baxt-u saodat keltiruvchi ulkan sayyora (sa’d – saodatli, baxtli, akbar – katta, ulkan). Mushtariy (Saturn) eng katta sayyora hisoblanadi. Zuhra unga qiyosan Sa’di asg‘ar – baxt-u saodat keltiruvchi kichik sayyora deyiladi. Baxtli burjlar ostida esa qilichi, qalami, ilmi yoki boshqa bir xususiyati b-n jahonni olgan ulug‘ insonlar tug‘ilganlar. Bunday burj ostida tug‘ilgan mahbuba esa husni b-n olam ahlini asir qiladi. M-n, N. quyidagi baytida sen saodatli

yulduz ostida tug‘ilgansan – go‘yo quyosh senga ota-yu to‘lin oy onadir, deydi:

Axtari sa’d seningdekki tug‘uptur go‘yiyo –
Kim, quyosh erdi atovu to‘lun oy erdi ano.

Sayyoralar o‘zlarining ana shu xususiyatlari b-n Sharq mumtoz she’riyatida rang-barang badiiy vazifalarni bajarib kelgan. N. o‘z fikrlarini go‘zal va ta’sirchan ifodalash u-n ulardan badiiy vosita sifatida foydalangan.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011.*

E.O.

SA’DIDDIN HAMAVIY (taxallusi; to‘liq ismi: Muhammad Mu’ayyad ibn Abubakr ibn Abulhasan ibn Muhammad Sa’diddin Hamaviy (t.y.n. – 1252, Xuroson) – tasavvuf olimi va mutasavvif shoir. Najmiddin Kubroning yetuk xalifalaridan bo‘lib, zohiriy va botiniy ilmlarda o‘z davrining yagonasi, hol va riyozat sohibi edi. Sadriddin Ko‘niyaviy uning suhbatiga borar edi. Aziziddin Nasafiyga tasavvuf ta’limotidan saboq berib, uni tariqat yo‘liga boshlagan “Sa’diddinning eng mo‘tabar va nozik fikrlari Nasafiyning asarlarida aks etgan”. Bir muddat Qosyun tog‘i etagida yashab, so‘ng Xurosonga qaytadi va shu yerda vafot etadi. Qabri Bahrobodda.

“Al-misboh fit-tasavvuf” (“Tasavvuf mash’ali”) asari mashhur. Shuningdek, “Sajanjal ul-arvoh” (“Ruhlar ko‘zgusi”) va “Mahbub” asarlari ham keng tarqalgan.

So‘fiyona ruboiylar ham yozgan. “N.M.”da keltirilishicha, “musannafotida marmuz so‘zlar, mushkil kalimot-u arqom-u va ashkol-u davoyir ko‘pdurki, aqlu fikr nazari aning kashfu hallidin ojizdur. Va hamonoki, to basirat ko‘zi kashf nuri bila munfatih bo‘lmag‘ay, alarning idroki muta’azzirdur”.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Абдулризо Сайф. Азизиддин Насафийнинг ҳаёти ва ижоди // Сино, № 7, (2002, Куз); Саъдиддин Ҳамавий. Рубоийлар // Донишмандлар туҳфаси. – Т., 2009.*

E.O.

SA’DIY ABDURAHMON (1889–1956) – S.A. o‘zbek-tatar ma’naviy-madaniy aloqalari va adabiy hamkorligi tarixida muhim rol o‘ynagan iste’dodli adabiyotshunos olim. Madaniy merosni o‘rganish b-n ancha jiddiy shug‘ullangan S.A. 1930-y.dan e’tiboran diqqatini mumtoz adabiyot namoyondalarini o‘rganish masalasiga qaratdi. S.A.ni ilk o‘zbek adabiyotshunosi va nazariyotchilaridan biri deb atash mumkin. U adabiy turlar va janrlar masalasiga ahamiyat qaratgan, n.shunoslik sohasida ham muhim tadqiqotlarini amalga oshirgan. N. tavalludining 500 yilligi munosabati b-n shoir asarlarini nashrga tayyorlash, arab yozuvidan kirill yozuviga o‘tkazish borasida e’tiborli ishlar qilgan. Y.E.Bertels rahbarligida “Alisher Navoiy ijodi – o‘zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotining yuqori bosqichi” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan. Ba’zi manbalarda uning N. ijodi bo‘yicha ilk fan doktori bo‘lishga erishgani qayd qilingan.

Ad.: *Саъдий А. Ўрта мактабларда адабиёт ўқитиш методикасининг асосий масалалари. – Т., 1934; Саъдий А. Имом Ғаззолий // Шарқ юлдузи, 2001 йил, 3-сон; Саъдий А. Гўзал санъат дунёсида // Уз АС, 2000; Саъдий А. Гўзал санъат дунёсида // Инқилоб. – Т., 1922.*

Sh.R

SA’DUDDIN MAS’UD IBN UMAR TAFTAZONIY (1322–1389) – filolog olim. Poetikaga oid sharh sifatida yozilgan “Muxtasar ulmaoniy” (“Ma’nolarning qisqacha sharhi”) asari muallifi. “X.M.” asarida N. uning Hirotning Iroq darvozasidagi Nizomiy madrasasida yashab, tahsil olgani haqida xabar beradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамсат ул-мутаҳаййирин. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011.*

E.O.

SA'DUDDIN KOSHG'ARIY (vafoti, 1456) – Hirotning mashhur shayxlaridan, Jomiy uning qiziga uylangan. N. "N.M."da yozshicha, S.K. boshda diniy ilmlarni puxta egallaydi, so'ngra tasavvufga rag'bati borligi u-n Nizomiddin Xomush suhbatlarida qatnashadi va unga murid tushib, shayxlik darajasiga erishadi. O'z davrining shayxlaridan Zayniddin Xavofiy b-n ham muloqotlar qilib, undan ham tasavvuf sirlarini o'rganadi. S.K. Xurosonda naqshbandiylik tariqatini yoyishda katta hissa qo'shadi. N. "X.M."da S.K.ni "qutbi tariqat va g'avsi haqiqat" deya tilga oladi va o'z davrida, "Naqshbandiya xojalari silsilasining komil va mukammil murshid"laridan bo'lganini qayd etadi. S.K. qabri vafotidan keyin muqaddas ziyoratgohga aylangan. N. "M.N."da keltirishicha, S.K.ning xalifasi Mavlono Burujiyning qabri o'z pirining yonida bo'lsa, Abdurahmon Jomiyning ukasi Mavlono Muhammad Jomiyning qabri esa S.K. sufasida, uning ayog'i saridadir. Jomiy "Nafahot ul-uns"da S.K. b-n bog'liq bir qator voqealar va karomatlarni naql qiladi. N. ham "N.M." da ularni keltirib o'tadi. S.K.dan keyin uning silsilasini Jomiy, Burujiy va boshqa xalifalari davom ettirgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик. 10-жилд. – Т., 2011; Фахруддин Али Сафий, "Рашаҳот". (2-нашри). – Т., 2004.*

S.R.

SA'DULLA Hakim (1951, Jizzax – 2020, Toshkent) – shoir, publitsist. U O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasining a'zosi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi (2002). "Mehnat shuhrati" ordeni (2019) bilan mukofotlangan. "Hamal tonglari" (1981), "Sen kutgan bahor" (1986), "Yoz oqshomi" (1996), "Ona so'z" (2000), "Saylanma" (2001), "Ko'ngil yuzi" (2006), "Ko'hna naql" (2011) kabi she'riy to'plamlari nashr etilgan. Ma'naviy hayotimizga oid "Esimda qolgan kunlar", "Atom qa'riga sayohat" kabi publitsistik asarlari adabiy jamoatchilik nazariga tushdi. "Bola Botir" dostonida (2013) badiiy so'zning ulkan maqsadlar va mustahkam e'tiqod yo'lidagi o'rni, ahamiyati tiniq obrazlar vositasida ochib beriladi. I.V.Gyote, A.S.Pushkin, M.Y.Lermontov, S.Yesenin, Yunus Emro kabi shoirlarning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

S.H. ijodida N. ta'siri va ilhomi yorqin namoyon bo'ladi. U buyuk shoirga bag'ishlab, "Navoiyga tashrif", "Navoiy va Bobur" kabi she'rlar yozgan, qator she'rlarida uning hayoti, faoliyati va ijodiga munosabat bildirgan, uni ta'rif-tavsif etgan. Jumladan, "Navoiyga tashrif" she'rida shoir nomidagi viloyatining bepoyon oltin konlari va N.ga tegishli muazzam meros oltinga qiyoslab, shunday satrlar bitadi:

So'z va oltin... biri el qalbida gar,
Biri yer bag'rida muzayyan, illo

Oltinni qidirsang Navoiy chiqar,
Navoiyni izlab topasan tillo!

Shoirning:

Ey, olami kubaro,
Goh vayron, goh shod ko'ngil,

Qilcha mehr nuridan
Ka'bacha obod ko'ngil, –

misralari esa buyuk salafining mashhur:

Kimki bir ko'ngli buzug'ning xotirin shod
aylagay,
Oncha borkim, Ka'ba vayron bo'lsa, obod
aylagay,

baytiga hamohang jaranglaydi.

Ad.: *Саъдулла Ҳаким. Ҳамал тонглари. – Т., 1981; Саъдулла Ҳаким. Сен кутган баҳор. – Т., 1986; Саъдулла Ҳаким. Ёз оқшоми. – Т., 1996; Саъдулла Ҳаким. Она сўз. – Т., 2000; Саъдулла Ҳаким. Сайланма. – Т., 2001; Саъдулла Ҳаким. Кўнгил юзи. – Т., 2006; Саъдулла Ҳаким. Кўҳна нақл. – Т., 2011; Саъдулла Ҳаким. Бола Ботир. – Т., 2013; Алимбеков А. Сўз чамани ичра наво кўргузуб. – Т., 2022.*

E.O.

SAQLOB – slavyanlar va ular yashaydigan yerlarning Sharq manbalaridagi nomi. N. asarlarida ham uchraydi. N. S.ni shimoliy mamlakatlardan, uluslardan biri deb hisoblaydi. Uning fikricha, shimolga qarab yurilsa, Xorazm va Dashti Qipchoqdan so‘ng Saqsin va S.ga yetiladi. Bundan ko‘rinadiki, N. ham S. deganda slavyanlarni, ular yashaydigan yerlarni tushungan. “S.I.” dostonida u Iskandarning Fors mamlakatini egallagandan so‘ng shimolga yurish qilgani haqida shunday yozadi:

Ochilg‘och bular shohi farxundafol,
Saodat bila qildi azmi Shimol.

Chu mulk olg‘ali da’bu xo‘razm etib,
Tavajjuh bila fathi Xorazm etib.

Chekib ra’yati mehri ishroqni,
O‘ruq aylabon Dashti Qifchoqni.

Chu bu nohiyatdin inontob o‘lub,
Inongiri Saqsin-u Saqlo bo‘lub.

Shunisi qiziqki, N. Rusni S.dan alohida el sifatida zikr qiladi. dostonda Iskandarning Saqsin va S.ni olgandan so‘ng Os-u Rus yerlariga yurish qilgani yuqoridagi parcha davomida kelgan quyidagi bayt mazmunan anglashiladi:

Chu ozim bo‘lub jonibi Osu Rus,
Bo‘lub yuzlari vahmdin sanadrus.

N. talqinida S. garchi uzoq shimol yurti bo‘lsa ham, Iskandar zuhuriga qadar Doroga tobe’ bo‘lgan. Doro va Iskandar o‘rtasida bo‘lgan urushda S.lar Doro qo‘shini tarkibida Iskandarga qarshi jang qilgan. Iskandar g‘olib bo‘lib, Doro o‘ldirilgach, turli o‘lkalardan kelgan boshqa lashkarlar b-n bir qatorda o‘z yurtlariga qochib ketgan:

Guruheki Doroparast erdilar,
Aning hukmig‘a zerdast erdilar.

Chu Doro ishi bo‘ldi el ichra fosh,
Aning ollig‘a qo‘ydilar barcha bosh.

Salotini Saqlob-u Mashriq zamin,
Ne Xorazm-u, ne Hind-u, ne mulki Chin,

Hamul kunki qochmoqqa mayl ettilar,
Tavaqqufsiz o‘z mulkiga kettilar.

G‘olib Iskandar bilimdon, so‘zga chechan kishilarni yig‘adi va ularni turli o‘lkalarga jo‘natib, o‘sha yerlarning hokimlariga o‘z so‘zlarini yetkazishni buyuradi. Ularning qo‘llariga nomalar ham beriladi. Elchilar jo‘natilgan, mamlakatlar orasida S. ham sanab o‘tilgan:

Hamul xayldin shohi oliy xirad,
Qilib har birin bir sori nomzad.

Biri mulki Saqlob-u Saqsin sori,
Biri Hind sori, biri Chin sori...

Berib har biri ilgiga nomaye,
Tuzub noma zimnida hangomaye.

N. S.ni faqat el, ulus nomi sifatida emas, shaxs nomi sifatida ham tilga oladi. “T.M.A.” asarida N. Yofas (a.s.) haqida ma’lumot berar ekan, uning o‘g‘illari haqida ham to‘xtaladi: “Yofasni payg‘ambari mursal debdurlar. Va ani yetti o‘g‘li bor erdi: Turk, Hazar, Saqlob, Rus, Misk, Chin, Komari. Ba’zi sekiz o‘g‘il debdurlar va sekizinchisi Torak debdurlar”.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

Q.E.

SAHLI MUMTANE' (ar. – oson-u imkoni yo‘q) – teran va serqirra mazmunni sodda va oddiy ifodalash. Atoulloh Husayniy ta'biri b-n aytganda, bunday she'rni "aytmoq oson-u yengil ko‘runur, ammo aningdek qilib aytmoq mumkin bo‘lmas, yo qiyin bo‘lur". Sharq adabiyotshunoslari Rudakiy va Sa'diy uslubini sahli mumtane' deb hisoblaydilar. Chunki ularning she'rlari bir qarashda oddiy va sodda ko‘rinsa-da, lekin ularga o‘xshatib yozish oson emas. Chunki bu soddalik chuqur bilim, keng dunyoqarash, katta hayotiy tajriba, yuksak ijodiy mahorat b-n omuxta buyuk soddalik bo‘lib, unga uncha-muncha shoir yetisholmaydi. Bunday she'rlarni Shayx Ahmad Taroziy o‘qilishi oson-u yozilishi qiyin, deb lutf etadi.

Atoulloh Husayniyning yozishicha, N.ning aksar turkiy va forsiy baytlari aynan S.M. uslubida yaratilgan bo‘lib, xalq og‘zaki ijodi namunalari, maqol-u hikmatlarga o‘xshab ketadigan bunday nazm durdonalari oddiy va sodda ko‘ringani b-n ularni yaratish har qanday qalam sohibining ham qo‘lidan kelavermaydi. Uzoqqa borib o‘tirmay,

Odami ersang demagil odami,
Oniki yo‘q xalq g‘amidin g‘ami, –

baytini olib ko‘raylik. Bu oddiy, lekin teran, sodda, ammo serqirra, tushunarli, ayni paytda aniq, ravon, jarangdor, ta'sirchan, badiiy jihatdan barkamol misralarda mutafakkir shoirning inson va uning jamiyatdagi o‘rni, inson hayotining mohiyati va umrining mazmuni haqidagi qarashlarining eng muhim nuqtalari qisqa va lo‘nda o‘z ifodasini topgan. Shu birgina baytni barcha ma'no qirralari b-n sharhlash u-n butun boshli kitob yozsa kam. Voqean, n.shunos olim A.Rustamov uni izohlab, o‘nta ma'nosini ko‘rsatib bergan. Bunday baytlar buyuk so‘z san'atkori merosida behad ko‘p. Ma'lum bo‘ladiki, N. o‘z ijodi b-n S.M. uslubini ham haddi a'losiga yetkazgan.

Ad.: *Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға // Ўзбек тили ва адабиёти, 2002, № 6; Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойеъ-ус-санойиъ (А.Рустамов тарж.). – Т., 1981; Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Т., 1979.*

E.O.

SAHOBA (ar. – ko‘pligi as'hob) – hamsuhbatlar, do‘stlar, safdoshlar, maslakdoshlar – Muhammad (s.a.v.)ning safdoshlari va yaqin yordamchilari, Payg‘ambar (s.a.v.) b-n muloqotda bo‘lgan yoki g‘azotlarda qatnashgan kishilar. Keyinchalik uni bir marta ko‘rgan kishilar ham, S. atala boshlagan. S.larning islom tarixidagi eng katta xizmatlari shundaki, ular Qur'onni, Muhammad (s.a.v) ta'limotlarini avlodlarga yetkazganlar. Ularning Payg‘ambar (s.a.v) rivoyat qilgan hadislari va ishlari, shuningdek, shaxsiy o‘rnaklari va fikrlari islom axloqiy ta'limoti – sunnatning eng muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. N. na't g‘azallarida va "X." dostonlarida hazrat Payg‘ambar (s.a.v)ni ta'riflar ekan, uning S.larini yordamchi, mehribon va eng yaqin maslakdosh kishilar sifatida zikr qiladi. Ularga salavot aytadi. (q.: salavot). S.lar Payg‘ambar (s.a.v) ga qanchalik fidokor va e'tiqodli bo‘lsalar, o‘z navbatida hazrat Payg‘ambar (s.a.v) ham ularni ummatning peshvolari, ulug‘lari sifatida ta'riflab, bir qator hadislar aytganlar. Shunday hadislardan biri "As'hobiy kan-nujumi biayyihim iqtadaytum ehtadaytum" ya'ni S.larim yuulduzlarga o‘xshaydilar. Qaysi biriga ergashsangiz ham hidoyat (to‘g‘ri yo‘lni) toparsizlar". N. aynan shu hadisni iqtibos san'ati asosida "H.A."ning to‘rtinchi na'tida S.larni ummatning eng ulug‘ insonlari ekanligiga urg‘u beradi." ... va as'hobi bobidakim har biriga ul sipehrda bir kavkabi raxshandaliq sodiqdururki, "ashobi kan-nujum" bu mazmung‘a notiq durur".(... va uning S.lari haqidakim ularning har biriga osmonda bir yorug‘ yulduz sadoqatda bo‘lgan hamda "Mening sahobalarim bamisoli yulduzlardir...." deyilgan hadis shu mazmunda aytilgan). N. bu o‘rinda S.lar va

yulduzlar orasidagi sifatlarni, xususiyatlarni jonlantirish va o‘xshatish san’atlari orqali ko‘rsatib, so‘z o‘yini qilib, mazmunni kuchaytirgan.

N. “N.M.”da keltirishicha, Xoja Bahouddin Naqshband “urvat ul-vusqo” ya’ni “mustahkam tutqich” iborasini hazrat Payg‘ambar (s.a.v) va S.larning yo‘lidan borish deb izohlaydi: “... ul ilik Payg‘ambar sallallohu alayhi va sallam mutobaatig‘a urmoqdur va S.i kirom osorig‘a iqtido qilmoq va bu tariqda oz amal bila ko‘p futuh yetishur. Ammo sunnat mutobaati rioyati ulug‘ ishdurki, har kishi bu tariqimizdin yuz uyursa, anga din xataridur...”. Najmiddin Kubroning shogirdi Shayx Raziyuddin Ali Lologa S.lardan Aburrizo Ratan bin Nasr degan kishi Rasulullоh (s.a.v.) tarog‘laridan birini unga bergan”. Va “... Shayx Ruknuddin Alouddavla “ul tarog‘ni bir xirqag‘a chirmab, ul xirqani kog‘azg‘a chirmabdur. Muborak xatti bila ul kog‘azg‘a bitibdurki; “Rasulullоh (s.a.v.) tarog‘laridan bo‘lgan bu tarog‘ va bu xirqa ham uning S.si – Aburrizo Ratandan kamina zaifga yetdi”. N. asarlarida S.lar “as’hob” deb ham tilga olinadi. “... Va yana “Ulamo payg‘ambarlar vorisidirlar” ahodisi andin xabar berur va ul Hazratdin so‘ngra buzrugvor as’hobi rizvonullohi taolo alayhim ajma’in xaloyiqqa bu rahnamoylig‘ni bajo kelturdilar va Haq subhonahu va taolog‘a yo‘l ko‘rguzdilar”. “... naqldurki, Hazrat Risolat (s.a.v.) olamdin o‘tarda, as’hob roziyallohu taolo anhum so‘rubdurlarkim, sizning muraqqa’ (Yamalgan, quroq qilingan to‘n) kimga havoladur? Debdurlarki, Uvays Qaraniyg‘a bersunlar va desunlarki, maning ummatimni duo qilsun!”

Ulug‘ shoir “G‘.S.” devonida Muhammad (s.a.v.)ning me’rojga chiqishini tasvirlar ekan, Uni qudsiy olamdagi so‘fiyga, payg‘ambarlarni esa uni yonida parvona bo‘luvchi as’hoblariga, Arshi a’loni esa payg‘ambarlar yig‘ilgan xonaqohga o‘xshatadi:

So‘fiyi olami qudsiy sen-u as’hob rusul,
Arshi a’lo kelib ul xayl uchun xonaqahing.

“L.M.”dagi na’tlarning birida ulug‘ adib hazrat Payg‘ambar (s.a.v)ning mashhur S.larining xususiyatlarini eslab, ashoblarini birma-bir ta’riflaydi. Umumiy ma’noda S.larni Payg‘ambar (s.a.v.) u-n ruhini – jonini fido etgan kishilar ekanligini ta’kidlaydi.

Islom tanig‘a ul kelib ruh,
As’hobi anga fido qilib ruh.

N. yuqoridagi baytda nozik ma’nosi b-n farqlanib turgan “ruh” so‘zini takror qo‘llaydi va baytning jozibadorligini oshiradi. Ruh birinchi baytda, ruh – jon ma’nosida bo‘lsa, ikkinchi baytda jonfidolik mazmunidadir. Shuningdek, (jannatiy deb bashorat berilgan) javharday nafis o‘n yori u badandagi o‘n hisday xizmat qiladi.

O‘n yori javohiri nafoyis,
Zohir qilib ul badang‘a o‘n his.

Ul to‘rtki ding‘a keldi nosir,
Bu ruh tani uchun anosir.

N. “S.I.” dostoninning LXIX bobida umrning, hayotning o‘tkinchiligi, yor-do‘stlarning g‘animat ekanligi haqida hikmatli baytlar bitib, shu jumladan, dunyodan birma-bir shitob b-n o‘tib ketadigan “as’hob suhbati”ni ham “g‘animat bilmak” va “har biri bir gavhari noyob” bo‘lgan “ahbob muloqotini” mug‘tanam bilish zarurligi haqida qayg‘uradi:

Ko‘rub umr tarixi mubhamlig‘in,
G‘animat bil as’hob hamdamlig‘in.

Umring tarixi – mubham, ya’ni, qancha yashashing noaniq ekanini bilganingdan keyin ayni damdagi hamdam-hamnafas do‘stlaringni g‘animat bil. N. umr va hayot haqida falsafiy-axloqiy fikrlarini davom ettirib, as’hob, yor – do‘stlardan judo bo‘lsang shodlanma, do‘stlaringdan jafo yetsa ham, ulardan ayrilma, deb nasihat qiladi:

Judoliqqa shod o‘lma as’hobdin,
Jafo yetsa ayrilma ahbobdin.

Chunki falakning ishi bevafolikdan iborat. U oxir-oqibat judolikka olib boradi. Vatandan – dunyodan oxir ovvora bo‘lib, uni tashlab ketar ekansan, nima u-n o‘zingga sitam qilib, uni mudom istab yurasan? Ha, charx ishi shunday, u doim shitob b-n har bir ko‘rgan obod narsasini xarob qiladi!

Chu gardun ishi bevafolig‘durur,
Saranjomi rasmi judolig‘durur...

Vatandin chu oxirdur ovoraliq,
Nedur oni istab sitamkoraliq.

Budur charx ishikim shitob aylagay,
Ne obod ko‘rsa – xarob aylagay.

N. asarlarida as’hob – do‘stlar, hamsuhbatlar, birodarlar degan ma’noda ham ko‘p qo‘llanadi. “N.M.”da tobeinlardan Shayx Abdulloh ibn Muborakni “tariqat as’hobning muhtashami” deb ta’riflasa, Shayx Valid bin Abdulloh Saqqo rahmatullohi alayhni “Kuniyati Abulis’hoqdur. Zunnunning as’hobidindur”, deb tilga oladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик, (1 ва 2-жилд. – Т., 1983; 3-жилд. 1984; 4-жилд. 1985) 2011; Турсун Аҳмад, Жуман Муҳаммадшариф. Ислом дини. – Т., 2013; Сўфи Оллоёр. Маслак ул-муттақин. – Т., 2012; Абдулқодир Абдураҳим ўғли. Ақоид дарслиги. – Т., 2007; Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик, 3-жилд. – Т., 2007; Ислом энциклопедияси. – Т., 2004; Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 2. – Душанбе, 1988.*

S.R.

“SAHOBDEK NAF’RASONLAR BOBIDAKIM...” – maqolat. “H.A.” dostonining g‘oyaviy-badiiy mazmunida o‘ziga xos o‘rin tutishi b-n bir qatorda N. ijodi, dunyoqarashining muhim jihatlarini aks ettirishi b-n ham ajralib turadi. Unda N.ga xos insonparvarlik butun bo‘y-basti b-n namoyon bo‘lganini ko‘rish mumkin. Naf’rason – insonlarga naf’ yetkazuvchi, ularga foydasi teguvchi, insonlarning manfaatlarini ko‘zlab ish qiluvchi kishi. Bob ana shunday oliyjanob odamlarga, o‘z hayoti mazmunini o‘zgalarga yaxshilik qilishda, ezgu ishlarni amalga oshirishda deb biluvchi komil insonlar ta’rifi va ularga xos ijobiy fazilatlarning badiiy talqiniga bag‘ishlangan. Mazkur ta’rif va talqinlar yuksak badiiy saviyada bitilgan go‘zal misralar va baytlarda, original, o‘ziga xos tashbehlar va boshqa san’atlar yordamida ifoda etiladi. Jumladan, “S.N.”larni muallif tongga, ularning borlig‘idan ufurib turgan mehrni quyoshga o‘xshatadi, ulardagi sabot va viqorni tog‘ga qiyos qiladi:

Ey bo‘lubon subh kibi siymposh,
Mehring o‘lub om nechukkim quyosh.

Subh kibi xalq yuzuga kulub.
Charx kibi el boshig‘a evrulub.

Jola kibi xora agar yog‘dik,
Boshni nihon aylamayin tog‘dek.

Albatta, “S.N.”larning o‘z maslaklarida bu kabi sobitliklari bejiz emas, zero, odamlarga, xalqqa mehr ulashgan, saxovat ko‘rsatgan, naf’ yetkazgan bu insonlarning ezgu ishlari ularning o‘zlariga ham ezgulik keltiradi. Mana shu fikrni ta’kidlar ekan, N. o‘zining hikmat, aforizm darajasiga ko‘tarilgan ushbu shohbaytini bitadi:

Naf’ing agar xalqqa beshakdurur,
Bilki bu naf’ o‘zunga ko‘prakdurur.

Keyingi misralarda bu fikr badiiy dalillanadi: bulut dengizga qatra yog‘diradi, dengiz uni

durri nobga aylantiradi; dehqon ko‘chatni parvarish qiladi va u gul ochadi hamda meva beradi. Aksincha, elga zarar yetkazishni odat qilib olgan kishi oxir-oqibat o‘ziga jabr qiladi:

Ulki zarar shevasini tavr etar.
Elga demakim, o‘ziga javr etar.

Bunday odamlar qilayotgan ishlarining oqibatini mulohaza qilmaydilar: shishani bosib sindirgan kishi shisha siniqlari oyog‘iga zahm yetkazishi mumkinligini o‘ylamaydi; alanga xas-xashakni kuydiradi, lekin kuydirib bo‘lgandan so‘ng o‘zi ham o‘chadi; kim falakka tosh otsa, u tosh o‘zining boshini yoradi. Xalqqa yaxshilik qilishni, odamlarga foyda keltirishni emas, aksincha, ularga yomonlik qilish, zarar yetkazishni o‘ylovchi shaxslar naf’rasonlarning tamomila aksidir. Eng asosiysi, ular naf’rasonlarni ko‘rolmaydilar. Ularga dushman sifatida qaraydilar. Bobda buning sababi haqida ham so‘z yuritilgan: Haq birovni pok yaratgan bo‘lsa, nopoklar uni sevmasa, ne bok; mevada mag‘z bilan birga po‘st ham bo‘ladi, insonning do‘sti bo‘lganidek dushmani ham bo‘ladi. Dunyoda yaxshi ham bor, yomon ham. Yomon yaxshining fazilatlarini ko‘ra olmaydi, uni pisand qilmaydi, uni kamsitishga, qilgan ishlari va xizmatlarini inkor qilishga intiladi:

Chunki erur asli yomon nopisand,
Aylamas ul yaxshini aslo pisand.

La’l hisobida tutar xorani,
Inju sonar bari sadafporani...

Yaxshig‘adur ahli hasad zahmati.
Naqdning o‘g‘ridin erur ofati.

Lekin ahli hasad, yomonlar hech narsaga erisha olmaydilar. Shoir ularni quyosh nurini to‘sgan bulutga, olamni o‘z nurli siymosi b-n yoritgan Rasulullоh (s.a.v.) qarshisidagi tiyra Bu Lahabga qiyos qiladi. N.ning yozganlaridan, bobning mazmunidan kelib chiqadigan eng muhim, qimmatli xulosa – yaxshilarning, naf’rasonlarning haqligi, ularning ezgu ishlarining bezavolligi va boqiyligi. Haq kimni nodirason-u naf’rason qilib yaratgan bo‘lsa va u bu ishlarni tark qilmasa butun el ko‘ngliga sevimli bo‘ladi. Bu esa, N.ning fikricha, ikki jahon hukmronligi b-n barobardir. Faqat insonlarga naf’ yetkazishni o‘ylash, olish emas, berishni odat qilishdan oliy ish yo‘q. Naf’rasonlik xususiyati haqida yozar ekan muallif bu sifatdan yoqimliroq hech narsa yo‘q, lekin bir ish mundan ham yaxshiroqdir, deydi. Bu – naf’rasonlikni, saxo va bazlni ochiq yuz va shirin so‘z b-n qilishdir. Mana shularni shior qilgan kishi odamiylarning odamiysidir, deb xulosa qiladi N.:

Ulki bu axloq ila aylab xirom.
Yetsa jafo aylamagay intiqom.

Balki kuduratni safo aylagay,
Necha jafo yetsa, vafo aylagay.

Oni bashar xaylining insoni bil,
Odamilar odamisi oni bil.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011.*

Q.E.

SAHHOF (asli – Muqavosoz) qo‘lyozma kitoblarni muqovalash b-n mashg‘ul bo‘lgan hunarmand usta. U qog‘ozrez, xattot, lavvoh, muzahhib, musavvirlar tayyorlagan qo‘lyozmani karton yoki charmdan ishlangan va bezatilgan muqovaga biriktirgan. Temuriylar Uyg‘onish davrida kitobat san’ati rivojlangani u-n sahhoflarga ehtiyoj va talab juda baland bo‘lgan. Tarixiy va adabiy manbalarda mashhur sahhoflar nomi zikr qilingani va ularning sahhoflik do‘konlari xususida qimmatli ma’lumotlar yozilgan. N. “M.N.” tazkirasida “Xatoiy” taxallusi b-n ijod qilgan shoir Mavlono Mir Qarshiyning Samarqand bozorida ochgan sahhoflik do‘koni va unda bo‘lib o‘tadigan xushtab’, nozikfahm

kishilarning ma’rifiy suhbatlari xususida gapirib o‘tgan. Chunonchi: “Mavlono Mir Qarshiy – Samarqandda bo‘lur erdi va bozorda sahhoflik do‘koni bor erdi, zurafo anda jam’ bo‘lurlar erdi va Mavlono o‘zin ul xaylg‘a ustod tutar erdi”.

N. zamondoshlarining yozishicha, shoir Hirotda juda boy kutubxona tashkil qilgan va uning kutubxonasida ko‘plab mahoratli sahhof ustalar faoliyat olib borgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

B.R.

SEMURG‘ / Simurg‘ – go‘yo Qof tog‘ining eng baland cho‘qqisida yashaydigan afsonaviy qush. Anqo ham deydilar. Uning parlarida barcha qushlar parlaridagi rang mavjudligi u-n S. nomi b-n ataydilar. Sharq adabiyotida bir badiiy timsolning bir qancha ma’nolar bildirib kelish (polifoniya) hodisasi ko‘plab uchraydi. Shunday badiiy timsollardan S. obrazi xalq og‘zaki ijodida ko‘pincha katta qiyinchiliklar, jumboqlar oldida turgan kishilarga mo‘jizaviy bir kuch-qudrat b-n madad yetkazuvchi afsonaviy qush timsoli sifatida tasvirlanadi.

Qofi shavqum sharhini tahrir qildim, vah, ne sud,
Kim anga irsol uchun simurg‘ mahramdur manga.

Ma’lumki, tasavvuf ta’limotida solik asl maqsadga, ya’ni Haqqa yetib borishi ko‘zda tutiladi. Haqqa yetib borish esa rahbar-rahnamo va yoki pir-murshid orqali bo‘ladi. Binobarin, N.ning falsafiy-tasavvufiy ruhdagi “L.T.” dostonida S. Haq, Hudhud esa pir-murshidning simvolik obrazlari bo‘lib, tasavvufda shakllangan to‘g‘ri yo‘l haqidagi qarashlarning barchasi mana shu markaziy obrazlar hisoblangan S. va Hudhud orqali ifoda etiladi. Asar markazida Hudhud, Kabki, Durroj, Tovus, Tazarv kabi qushlarning sarguzashtlaridan bahs qilinadi. Ular bir gulistonga to‘planib, anjuman qurmoqchi bo‘ladilar. Lekin o‘rtada kim yuqori, kim quyi o‘tiradi, degan masalada bahs boshlanib, janjalga aylanib ketadi. Shunda Hudhud hammani tinchlantirib, totuvlikda yashash u-n S. deb atalgan qushlar podshohini izlab topish haqidagi taklifni o‘rtaga tashlaydi:

Sizga shohe bor beshibh-u, misol,
Vasfini ayturda yuz ming nutq lol.

Borcha olam qushlarig‘a shoh ul,
Holingizdan mo‘-bamo‘ ogoh ul.

Ul yoqin sizga-yu siz ondin yiroq,
Vasl anga oyin, vale sizga – firoq...

Birlik oyinida zotidir oning,
Lek mingdan ko‘p sifotidir oning.

Qushlar S.ni izlab yo‘lga tushadilar. Yo‘lda mavjud yetti vodiyni zo‘r mashaqqat, talafotlar b-n bosib o‘tib, faqr-u fano vodiysiga eson-omon yetib kelgan qushlar o‘ttizta edilar. Bu vodiy o‘zida hammani oynadek aks ettirib turar edi. Qushlar ham o‘zlarini ko‘radilar va izlaganlari Simurg‘ – o‘zlari ekanliklarini anglaydilar. N. “Qushlarning fano husulidin baqo vusulig‘a yetkoni” bo‘limida Simurg‘ b-n bo‘lgan visolni shunday ta’riflaydi:

Ko‘rdilar o‘zni qayonkim tushti ko‘z,
Alloh-Alloh ne ajoyibdur bu so‘z.

Kim qilib Simurg‘ o‘ttiz qush havas,
O‘zlarin ko‘rdilar ul si murg‘u bas.

N.ning nuqtayi nazari bo‘yicha esa o‘ttiz qush (tariqat yo‘lidagi soliklar) riyozat chekish asnosida tabiatlari soflanib, o‘zlaridagi Simurg‘-ni (Allohning zuhurini) kashf qildilar. Ya’ni, o‘zlaridagi Ilohiy O‘zlikni qayta kashf etdilar. Alloh olamlarning ijodkoridir, binobarin, mavjudot Yaratuvchining zarralaridir. Alloh o‘z husn-u jamolini ko‘rish u-n olam va mavjudotlarni ko‘zgu timsoli o‘laroq yaratgan. Mavjudot esa Allohda o‘z zuhurini ko‘radi. “L.T.”da S. shoirning ana shu qarashini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Шарипов Ш. Алишер Навоий "Лисон ут-тайр" достонининг генезиси ва ғоявий-бадиий хусусиятлари. – Т., 1982.; Мамадалиева З. Алишер Навоийнинг "Лисон ут-тайр" достонидаги рамзий образлар тизими. – Т., 2016; Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. – Душанбе, 1987; Фарҳанги забони тожики. – М., 1969; Жилд 1; Жилд 2; Истилоҳоти сўфиён. – Теҳрон, 1388 (ҳ.-ш.); Абдуллаев А. Тасаввуф ва унинг намояндалари. – Т., 2009; Шайх Маҳмуд Шабустарий. Гулшани роз (Ж.Камол тарж.). – Т., 2013.*

H.H., E.O., S.O'.

SEMYONOV Aleksandr Aleksandrovich (1873, Tambov – 1958, Toshkent) – sharqshunos, t.f.d. (1942), prof. (1942), O'zR FA muxbir a'zosi (1951), O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi (1944). Arxeologik ekspeditsiyalar a'zosi, musiqashunos, tarixchi, filolog, tarjimon, bibliograf sifatida tanilgan. S.A.A. Buxoro kutubxonasida qo'lyozmalar bibliografiyasini tuzgan. Shuningdek, Buxoro musiqa san'atini o'rganish asnosida Darvesh Ali Changiy, Najmiddin Kavkabiyga doir tadqiqot ishlarini olib borgan. Olim 14 jilddan iborat "O'zbekiston Sharq qo'lyozmalari" to'plamining 5 va 6-jildlarini tayyorlashda bosh bo'lgan. S.A.A. N. asarlari qo'lyozmalarini ham o'rgangan, O'zbekiston davlat kutubxonasida saqlanayotgan qo'lyozmalarni tavsif qilgan hamda "Описание рукописей произведений Алишера Навои, хранящихся в Государственной публичной библиотеке Узбекистана" nomi b-n chop ettirgan. N. davri va san'atini o'rganishda olimning "Navoiy davri portretlari" (1940) nomli tadqiqoti muhim o'rin tutadi. Unda muallif XV asrning ikkinchi yarmida yaratilgan va turli musavvirlar qalamiga mansub bo'lgan 10 ta portret haqidagi mulohazalarini bayon etgan.

S.A.A. N. hayoti va faoliyatiga oid bir qator maqolalar e'lon qilgan. Ular orasida "Взаимоотношения Алишера Наваи и Султана Хусейн мирзы" ("Alisher Navoiy va Sulton Husayn mirzo o'rtasidagi o'zaro munosabatlar") maqolasi ahamiyatga molik. Olimning ilmiy faoliyatida, asosan, manbashunoslik yo'nalishi yetakchilik qiladi. N. asarlarining to'liq tavsiflari bilan manbalarini inventardan o'tkazib, bibliografiyani shakllantirishga erishgan. S.A.A. N. asarlarining qo'lyozma manbalari tavsifiga doir "Каталог рукописей исторического отдела Бухарской Центральной Библиотеки", "Материалы к библиографическому указателю печатных произведений Алишера Навои и литературы о нем", "Описание персидских, арабских и турецких рукописей Фундаментальной библиотеки Среднеазиатского государственного университета" nomli bibliografiyalarni yaratdi. Kitobdan N.ning bir qancha asarlarining qo'lyozmalari o'rin olgan. Jumladan, 40-inventar raqamda "M.N." va "T.M.A." birga ko'chirilgan. "Chig'atoy tilida, birinchisi forsiy tarix, ikkinchisi so'fiylar hayoti haqida" deb yozilgan. U N. zamondoshlari qatorida Binoiy, Abdurahmon Jomiy, Xondamir, Vosifiy asarlari haqida ham qisqacha ma'lumot bergan. Kitobda asar nomi arab alifbosida berilgan, tavsiflar esa rus tilida keltirilgan. Kitobning ilmiy qimmati manbalarning tarixiy ma'lumotlar asosida izohlangani, dunyo bo'yicha mavqeyi va xalqaro kutubxonalardagi qo'shimcha manbalari ko'rsatilgani b-n belgilanadi. Keyingi – 1935-y.da tuzgan forsiy, arab, turkiy qo'lyozmalar katalogida N.ning faqat bitta asari kiritilgan. Unda 1841-y. Katrmer tomonidan tuzilgan xrestomatiya va unga kiritilgan "M.L.", "T.M.A." asari haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, Belin, Martin Xartman, Berezin, Vamberi va boshqa sharqshunoslar asarlarida keltirilgan ma'lumotlar xronologik tarzda joylashtirilgan. 1938-y.ga qadar n.shunoslik borasida amalga oshirilgan ishlar ham kitobdan o'rin olgan. O'sha yillarda Ilin, Orifjonovlarning toshbosma matbaalarda nashr etilgan N. asarlari nashrlari ham olim nazaridan chetda qolmagan. Kitobning ikkinchi qismida Silvester de Sasi, Nikitskiy, Charlz Ryo, Zaleman, Edgar Bloshet

kabi olimlar tuzgan kataloglar, maxsus bag‘ishlangan asarlar qatorida Davlatshoh Samarqandiy, Bobur asarlarining Turkiya, Qozon nashrlari hamda asr boshlaridagi olimlarning vaqtli matbuotdagi chiqishlari ham keltiriladi.

Ad.: *Семёнов А.А. Персидская новелла о Мир Али Шире Неваи // Бюллетень САГУ, № 13. – Т., 1926; Семёнов А.А. Гератская художественная рукопись эпохи Навои и ее творцы. – В сб.: Алишер Навои. М.–Л., 1946; Семёнов А.А. Взаимоотношения Алишера Навои и султана ХусейнМирзы // Исследования по истории культуры народов Востока: сб. в честь акад. И. А. Орбели / М.Л, 1960; Семёнов А.А. Описание рукописей произведений Навои, хранящихся в Государственной публичной библиотеке [Текст] / Юбилейный ком. 18 т., Навои. – Т., 1940; Семёнов А.А. Описание таджикских, персидских, арабских и тюркских рукописей Фундаментальной библиотеки Среднеазиатского Государственного университета. Вып. 2. – Т., 1956; Семёнов А.А. Материалы к библиографическому указателю печатных произведений Алишера Навои и литературы о нем. – Т., 1940; Тожибоева О. Семёнов – манбашунос, библиограф олим // Алишер Навоийнинг жаҳон адабиётида тутган ўрни мазуидаги илмий-амалий анжуман, 2021.*

Q.E.

“SEN O‘Z XULQINGNI TUZGIL...” – N. ning “B.B.” devonidan o‘rin olgan g‘azal:

Sen o‘z xulqungni tuzgil, bo‘lma el axloqidin xursand,
Kishiga chun kishi farzandi hargiz bo‘lmadi farzand.

Zamon ahlidin uz payvand, agar desang birov birla
Qilay payvand bori, qilmag‘il noahl ila payvand.

Ko‘ngul komini qo‘y, gar xud mening
devona ko‘nglumni
Toparsan o‘yla yuz parkand-u sol
har itga bir parkand.

Eshitmay xalq pandin, turfakim pand
elga ham dersen,
Qila olsang eshitgil pand, sen kim, –
elga bermak pand.

Bu foniy dayr aro gar shohlig‘ istar esang, bo‘lg‘il
Gadolig‘ nonig‘a xursand-u bo‘lma
shahg‘a hojatmand.

Bo‘lib nafsingg‘a tobi’, band etarsen
tushsa dushmanni,
Sanga yo‘q nafsdek dushman,
qila olsang ani qil band.

Shakar lablar tabassum qilg‘onin
ko‘rgach ko‘ngul berma,
Ki bedillarni achchig‘ yig‘latur
oxir bu shakkarxand.

Jahon lazzotini shirin ko‘rarsen, lek bandingdur,
Giriftor o‘lma, voqif bo‘lki, qand-u qaydur erur.

Ko‘nguldin jahl ranji dofiyi gar istasang, bordur
Navoiy bog‘i nazmi shakkaristonida ul gulqand.

Ijodining boshlanish bosqichlaridayoq N. daho san’atkorlarga xos eng noyob fazilatlarni namoyish eta olgandi. U qanday she’r yozmasin, “Ki har harfi bo‘lg‘ay aning durri pok”, deganida mubolag‘a qilmagandi. Uning yigitlik davrlarida yozgan “Sen o‘z xulqingni tuzgil, bo‘lma el axloqidin xursand” misrasi b-n boshlanadigan “B.B.” devonidagi g‘azalining ham har so‘zi alohida qimmatga ega o‘ziga xos pandnomadir. G‘azal o‘z xulq-atvori xususida chuqur o‘ylamaydigan, aniqrog‘i, o‘zi-o‘ziga tanqidiy ko‘z b-n qaray olmaydigan kimsalarga murojaat b-n boshlanadi.

Abu Nasr Sarrojning aytishicha, axloq-odobda insonlarning uch darajasi bordir. Birinchisi, dunyo ahli – bunday kishilar adabining asosi fasohat, balog‘at, nafosat ilmlarini egallashdir. Ikkinchisi, din ahli – bular axloq-odobda riyozat b-n nafsni isloh aylash, shahvat va orzularni tark qilishga alohida ahamiyat berishlari lozim. Uchinchisi, xos

xususiyat ahli – bulardan qalb pokligiga erishish, sirni pinhon saqlash, ahdga vafo etish, vaqtlarini muhofaza qilish, xavotirga berilmaslik talab etilgan. G‘azalning matla’sidagi fikr oddiy odamga, ya’ni dunyo ahli vakiliga qaratilgan.

Ilgari surgan asosiy maqsadni dalillash u-n shoir ko‘proq oddiy odamlarning ongida o‘rnashib qolgan, “Birovning farzandi birovga farzandlik qilmaydi”, – degan gapga suyanadi:

Sen o‘z xulqungni tuzgil, bo‘lma el axloqidin xursand,
Kishiga chun kishi farzandi hargiz bo‘lmadi farzand.

Bunda axloq farzandga qiyoslanib, uni farzand yanglig‘ tarbiyalash zarurligi ham ta’kidlangandir.

Ikkinchi baytdagi, “Zamon ahlidin uz payvand” – “zamon ahlidin aloqani uzgil” degan talab zamon ahli b-n yaqinlashuvni inkor etayotgani yo‘q. Balki ahillikni bilmaydigan, zamon zayliga qarab turlanib, tuslanaveradigan subutsiz zotlardan uzoqlashishga chorlagan:

Zamon ahlidin uz payvand, agar desang birov birla
Qilay payvand bori, qilmag‘il noahl ila payvand.

Ko‘ngil yo‘li – toza va sharafli yo‘l. Lekin inson ko‘ngil nomi b-n goho har turli xato va adashishlarga ham erk beradi.

Ammo oshiq “devona” ko‘nglining itga ravo ko‘rilishi – sodiqlik va vafo belgisi:

Ko‘ngul komini qo‘y, gar xud mening devona ko‘nglumni
Toparsen o‘yla yuz parkand-u sol har itga bir parkand.

“Ko‘ngil” istaklariga bo‘ysunganlar, odatda, boshqalarning fikr-mulohazalari b-n hisoblashmaslikka moyil bo‘lishadi. Bunday holatda, hatto oqil va dononing pand-nasihatlari ham nazar-pisand qilinmaydi. Bu, xususan, yoshlikda va “nafs tavsani”ga minganda, kibr va g‘urur bandalarida ko‘proq ko‘zga tashlanadi.

Eshitmay xalq pandin, turfakim pand elga ham dersen,
Qila olsang eshitgil pand, sen kim elga bermak pand.

Bunday moumanlik va sarkashlikka bosh sabab nafs va tama. “Gadolig‘ nonig‘a xursand-u shohga hojatmand bo‘lmaslik” u-n qanoatda podshohlik lozim:

Bu foniy dayr aro gar shohlig‘ istar esang, bo‘lg‘il
Gadolig‘ nonig‘a xursand-u bo‘lma shahg‘a hojatmand.

“Nafs” so‘zi biror narsaning mavjudligi, haqiqati, zoti va o‘zligi, degan ma’nolarni ifodalaydi. Oddiy xalq orasida “nafs” kalimasi turli ma’noda qo‘llanilgan bo‘lib, goho ular bir-biriga zid mazmunlarni aks ettirgan. M-n, bir toifa nafsni ruh deb tushunsa, yana boshqa bir guruh muruvvat, odamiylik, mavjudlik quvvati deya anglagan. Tasavvuf ahlining qarashlari esa bularning birortasiga ham muvofiq kelmaydi. Ularning umumiy nuqtayi nazari bo‘yicha, nafs (nafsi ammora) barcha yomonlik, chirkinlik va gunohlarning asosidir. Junayd Bog‘dodiy “Kufrning asosi – nafsning murodidir” desa, Abu Sulaymon Daroniy “Nafs ham xoin, ham g‘animdir. Eng yaxshi amal unga qarshi kurashmoqdir” deydi. N. ham nafsni xavfli dushman, deb tanitadi:

Bo‘lub nafsingg‘a tobi’, band etarsen tushsa dushmanni,
Sanga yo‘q nafsdek dushman, qila olsang ani qil band.

Sirtdan qaralganda, bu gaplarning keyingi baytdagi ma’noga uncha aloqasi yo‘qqa o‘xshaydi. Biroq “shakar lablar tabassumi”ga asir aylab, keyin yig‘latguvchi aslida makkor nafsdir:

Shakar lablar tabassum qilg‘onin ko‘rgach ko‘ngil berma,
Ki bedillarni achchig‘ yig‘latur oxir bu shakkarxand.

Jahon lazzatlari chindan ham totli. Shu bois jahondan mehr ipini uzish qiyin. Dunyo inson farzandini suyab – avraydi, avrab – sehrlaydi:

Jahon lazzotini shirin ko‘rarsen, lek bandingdur,
Giriftor o‘lma, voqif bo‘lki, qand-u qaydur erur.

Inson farzandi “nafs bilan dunyoga dil” berish qanday oqibatlarga olib borishini bilish va riyozat chekib, chuqur mushohada yuritishga hech payt belni mahkam bog‘lamaydi. Shu quvvatsizlikdan g‘aflat, jaholat, zulm, riyo, adovat singari o‘nlab balo va ofatlar yuzaga chiqadi. Bular orasida jahl va jaholat eng xavflidir.

Ko‘nguldin jahl ranji dofiyi gar istasang, bordur,
Navoiy bog‘i nazmi shakkaristonida ul gulqand.

N. she’riyati ko‘ngildan jahl va g‘azab, qahr va zulm ranjlarini daf’ aylashga qodir she’riyat. Buni biz qancha yaxshi bilsak, ma’naviy hayotimizdagi ishlar o‘shancha tez o‘nglanadi va eng qiyin jumboqlar ham o‘shancha oson yechimini topadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011.*

I.H.

SEHR (ar. – jodu, afsun, fusun). “Kelib chiqishi maxfiy narsa”, “biror narsani aslidan boshqacha qilib ko‘rsatish” g‘ayritabiiy kuchlar vositasi b-n g‘arazli maqsadda odamlarga zarar yetkazish, ta’sir o‘tkazish, avrash va makr-hiyla qilish. S. qadimiy tushuncha bo‘lib, xususan, arab qabilalarida islomgacha ham mavjud bo‘lgan. Diniy, tarixiy, badiiy adabiyotlarda S. haqida turli xil ma’lumotlar uchraydi. Islom dinida gunohi kabiraning biri sanalgan. S. Qur’on va hadisda qattiq qoralangan hamda mo‘min-musulmonlarning bu ishga mutlaqo yaqinlashmasligi aytilgan. Qur’onning bir necha o‘rnida (Baqara, 102; A’rof, 116; Yunus, 76, 77, 81; Toha, 60-69) bu xususda maxsus oyatlar kelgan va sehrgarlarning najot topmasligi, ular qayerda bo‘lsa ham zafarga erisholmasligi ta’kidlangan.

N. ijodida S. haqida ko‘p to‘xtalgan o‘rinlar mavjud. Xususan, “S.I.”da: S.ni “Fusungar ishi, makr-u tazvirdur”, – deya ta’riflaydi. S.da kashmirliklarga teng kelib bo‘lmasligini aytadi: “Bu ishki afsuni Kashmir erur, Ani daf’ etarga ne tadbir erur”. “T.A.H.”da Muso (a.s.)ning Fir’avn sehrgarlari ustidan g‘olib kelgani, ular sehrini botil qilganini batafsil bayon etadi: Fir’avn dedi: “Sen sohirsen, mening ham sohirlarim bor. Agar alarg‘a g‘olib kelsang, sen degondek qilay, yo‘q ersa, seni halok etay. Sohirlarin yig‘ib, holni alarg‘a aytti. Alar qabul qildilarkim, necha kundin so‘ngra biz sehrlar qilolikim, Muso (a.s.) ning sehrin botil qilg‘ay. Mi’dod kuni alar ip va yig‘ochlar bila yilonlar yasab erdilar, ul dashtqa qo‘yg‘och, mutaharrik bo‘lub, Muso (a.s.) asoni tashlag‘och, ajdaho bo‘lub, ul sehrlarni yutti. Va Muso (a.s.) tutqonda hamul aso bo‘lub, ul: sahara bu holni ko‘rgoch, Muso (a.s.)g‘a iymon keturdilar va bani Isroil masrur bo‘ldilar”.

Asrlar davomida S.ning o‘ziga xos an’anaviy va yangicha tasvir uslubi shakllangan. Uning ijobiy va salbiy tushunchalari adabiyotda majoziy ma’no kasb etib borgan. Jumladan, “F.Sh.”da:

Hunardin ko‘rguzub yuz sehri Bobil,
Arig‘ o‘tkargali qilg‘uncha qobil. –

deya Shirin mamlakatida ariq o‘tkazish ishiga kirishgan Farhodning yuz Bobil sehrini namoyish etganini tasvirlab, ijobiy ma’noda qo‘llaydi. Bunda “Bobil sehri” tushunchasi orqali Bobilda Sulaymon (a.s.) qavmiga S.ni o‘rgatish u-n sinov tariqasida tushirilgan ikki farishta (Horut va Morut) b-n bog‘liq hikoyaga ishora qilgan.

Fusungar aytibon yolg‘on-u chindin,
Chekar af’ini afsun birla indin.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. ТАТ. 10 жилдлик,*

7-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.

E.Q., S.R.

SEHRI HALOL (ar. – ajoyib va g‘aroyib narsalar izhori, hayratangiz mahorat, so‘zda afsun ko‘rsatish, sehrpardozlik) – san’atkorlik ko‘rsatib, she’rni badiiy mo‘jiza darajasiga ko‘tarish. Voqean, istilohning lug‘aviy ma’nosi ham chuqur mazmuni va badiiy yuksakligi b-n o‘quvchini hayrat va hayajonga soladigan asar demakdir. Bu san’atni tajozub deb ham yuritadilar. Tajozub tortishmoq ma’nosini bildiradi. “Ul andin iboratturkim, kalomda bir lafzni keltirurlarkim, ul o‘zidin olding‘i va ilova qiling‘an lafzlarning har biriga taaluqlug‘ bo‘la olur...”

Shayx Ahmad Taroziy sehri halolni 2 ga ajratadi. Birinchisida avvalgi misra keyingisiga bog‘liq bo‘ladi, ikkinchisida “avvalgi misraning oxirinda lafze keltururlarkim, lafz avvalg‘i misrani tamom qilur. Va ikkinchi misrag‘a taqi parvarish berur, ya’ni ikki tarafni parvarish qilur”. N. ijodida ham S.H. san’atining betakror namunalarini uchratamiz. M-n, quyidagi baytida “ul quyosh” (istiora: quyosh yuzli go‘zal mahbuba) ilk misraning har ikkala qismiga ham tegishli: “zavraq ichra ul quyosh” – u go‘zal kema ichida va “ul quyosh sayr aylamas Jayhun aro” – u go‘zal aslida Amudaryo ichra sayr aylamaydi, ya’ni misraning har ikki tarafini o‘ziga bog‘lab turibdi:

Zavraq ichra ul quyosh sayr aylamas
Jayhun aro,
Axtari sa’de hilol ichra kezar gardun aro.

Xuddi shunday keyingi misolda “taskin topar” misrasi o‘q kabi misraning 2 qismini bog‘lab turibdi: ma’shuqa o‘qi, ya’ni kipriklari nishtaridan taskin topish va ko‘ngil o‘tining taskin topishi:

O‘qlaringdin dam-badam taskin topar
ko‘nglum o‘ti,
Bordurur bir qatra su go‘yoki har paykon anga.

Ad.: *Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға // Ўзбек тили ва адабиёти. 2002, № 6; Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойеъ-ус-санойеъ (А.Рустамов тарж.). Т., 1981; Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. – Душанбе, 1987.*

E.O.

SIDDIQ I – yashiringan muammo. Asarni turli adabiy san’atlar, so‘z o‘yinlari b-n bezash va yangi usullar topish badiiy adabiyotning yetukligi, originalligini ta’minlash shartlaridan sanaladi. N. muammolari ham shoir san’atkorligini ko‘rsatuvchi asarlardir. U mumtoz adabiyot tarixida “eng ko‘b va eng xo‘b” muammo yaratgan ijodkorlar qatorida turadi. Shoirning “N.Sh.” devonidagi mavjud muammolarning 25-raqam ostidagisi S. lafzini yashirishni nazarda tutgan:

Yuzung bila yuzuma kosh bo‘lsa o‘yla visol,
Ki, bo‘lmasa arolarinda g‘ayri ul xat-u xol.

She’riyatda muammolarni yechishning o‘ziga yarasha shart-sharoitlari bo‘lib, ularning mag‘zini anglash kitobxondan topqirlik, zukkolikni talab qiladi. Ulardan birinchi va eng zaruriysi, bu – arab alifbosini yaxshi bilish. Demak, S.ning arab imlosidagi shakli قيدص shunday yoziladi. Bayt sinchiklab o‘qilsa, lirik qahramon “visol” istaydi va muammo shu so‘zdan izlanadi. Muammo hisob yoki ta’lif usullariga ko‘ra yechiladi:

I yuzum – yuz 100 fors-tojik tilida sad
II yuzung – yuz – 100 abjad hisobida harfi

Bu ikkala “yuz” orasidagi “xat” va “xol” ى bo‘lib, tarkib topsa, ق + ى + صدSiddiq ismi hosil bo‘ladi. Bunda ي harfining so‘z boshidagi يـ dagi asos يـ yor xati – va uning ostidagi nuqta yor xolidan iborat. Ya’ni shu so‘zlarni tashkil qiluvchi belgilar olib tashlansa, oramizda chinakam sadoqat bo‘lar edi, degan ma’no kelib chiqadi. N. ushbu muammosi orqali Alloh visolini istagan mo‘min u-n orada boshqa kimsaning bo‘lishi maqsaddan uzoqlashtiradi, degan ma’noga ham

ishora qiladi. Demak, shoir ana shu mazmunlarni nazarda tutib, kitobxonga oshiqlik va axloq me'yorlarining ayrim qirralarini xotirlatib o'tgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2011; Зоҳидов Л. Алишер Навоий ижодида муаммо жанри // Масъул муҳаррир: С.Эркинов. – Т., 1986; Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Т., 1983.*

Y.I.

SIDDIQ II (ar. – o'ta rostgo'y, ishonuvchan, tasdiqlovchi, to'g'riso'z; avvalgi xalifa hazrat Abubakr (r.a.)ning laqabi.)

I. S.larga xos bo'lgan asosiy xususiyatlardan biri rostgo'ylik va sadoqatdir. Lekin hamma rostgo'ylar ham S. bo'lolmaydi (Q.: rostlig', sidq).

II. Hazrat Abu Bakr (r.a.) sifati: S. haqidagi qarashlardan, badiiy matnlardan ayon bo'ladiki, siddiqlar valoyatning a'lo va nubuvvatning adno (quyi) darajasida turadilar. N. Abu Bakr Siddiq (r.a.) ta'rifida bitgan satrlarida u zotning sodiq va siddiq ekaniga diqqatni qaratadi:

Sodiq-u siddiq hamrozi oning,
Har yomon-yaxshida damsozi oning...
Muqtadoyi zumrayi tahqiq ul,
Sobiq islom ahlig'a siddiq ul...

Ma'lumki, islom olamidagi ilk xalifa hazrat Abubakr (r.a.) isro va me'roj hodisasini eng birinchilardan bo'lib tasdiqlagani u-n hazrat Payg'ambarimiz (s.a.v.) unga S., ya'ni iymoni kuchli, eng rostgo'y, degan laqab berganlar. U zot Muhammad (s.a.v.)ning Makkadan Madinaga hijrat qilishlarida yo'lda hamroh va g'orda hamnishin bo'lgan. N. "F.K." devonidagi Rasulullo (s.a.v.) ga bag'ishlagan na'tlarining birida sidq payg'ambarlikning 46 fazilatidan biri ekanligiga urg'u beradi va ayni paytda Rasuli akram (s.a.v.)ning yuksak sidqini ta'riflaydi.

Kelib sidqing ollida siddiqlar,
Aningdekki, siddiq-u ahli riyo.

Ya'ni, siddiqlar va riyokorlarning rostgo'yliklari orasida qancha farq bo'lsa, hazrat Payg'ambar (s.a.v.)ning va siddiqlarning sidqlari orasida ham shuncha tafovut bor...

III. Oliy toifa valiylarga berilgan sifat. N. "N.M."da Abu Hamza Bag'dodiy (q.s.)ning S. haqidagi ushbu teran mazmunli hikmatini keltiradi: "...agar g'aflat bo'lmaganda edi, siddiqlar Alloh zikri nash'asidin halok bo'lur erdilar! Va ham ul debdurkim, faqirlarni do'st tutish og'ir, unga siddiqlardan boshqalar chiday olmaydilar". "Va Abu Said Zohid debdurkim, Zakariyyoni ko'rdum va suhbat tuttim, siddiqlardin erdi". Shuningdek, shoir Abu Said Xarroz va Zakariyyo b. Yahyo Hiraviy (q.s.)larni ham S.lardan ekanini aytadi. N. tazkirada S.larning o'ziga xos xususiyatlaridan biri haqida shayx Sirvoniyning shunday so'zini keltiradi: "siddiqlarning xotiridan ketadigan oxirgi narsa – rayosat sevgisidir".

N. o'zining "M.Q." risolasida ishqning uchinchi va eng yuqori darajasi S.lar ishqi haqida, jumladan, shunday deydi: "Uchunchi qism siddiqlar ishqi bo'lib, ular Haqning jamolini ochiq ko'rish istagi bilan kuyib yonadilar. Talablari shudir. Ular Haqni ko'z bilan mushohada qilish umidi tufayli o'zni unutish darajasiga yetgan va bundan ham o'tib, fano maqomini hosil etgandirlar... ularning hislari (sezgi a'zolari) Ma'shuq jamolining tajalliyoti tashvishi bilan, zavqlari behisob ishqning hujumi tufayli ishdan chiqqan. O'zlari yetishgan holdan ularning nazarlarini avliyo-yu anbiyolar (nabiylar, payg'ambarlar) etgan maqom ham qaytara olmaydi va muqarrab farishtalar tomon nazarlarini solmaydilar. Hollari Ma'shuq jamoli mushohadasi (ko'rish) talabida va mashg'ulotlari ham uning mulohazasi bilan va ko'ngillari visol mayi nasibasidan behush va mast. Ketma-ket tajalliy nuridan a'zolari shikastlangan. Ruhlari visol bodasidan boshqa narsani xohlamaydi va Haq mushohadasidan boshqa narsa bilan ko'ngillari orom olmaydi..."

Ad.: *Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2011; Алишер*

Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Сиддиқ. Ислом. Энциклопедия. – Т., 2004.

S.R.

SIYOVUSH – Kaykovusning o‘g‘li. N.ning “T.M.A.” asarida ma’lumot berilishicha, go‘zallikda tengsiz bo‘lgan. Rustami doston tarbiyasini olgan. O‘gay onasi Sudoba unga oshiq bo‘lib qoladi va maqsadiga erisholmagach, tuhmat b-n S.ni badnom qiladi. S. otasidan xafa bo‘lib, uning dushmani bo‘lgan Afrosiyob huzuriga boradi. Afrosiyob bundan xursand bo‘lib, qizini unga nikohlab beradi. Turkiston mulkini in’om qiladi. Keyinchalik S. boshqa kuyovi Girsiyuzning ig‘vosi b-n Afrosiyob tomonidan nohaq o‘ldiriladi. Uning vafotidan so‘ng o‘g‘li Kayxisrav tug‘iladi. Kayu binni Kudraz Kashvod yashirincha kelib, uni onasi b-n Eronga olib qochib ketadi. Rustam S. qonini tilab kelib, Turonni vayron qiladi. Afrosiyob qochadi. Kaykovus taxtni Kayxisravga beradi. “Siyovush uchun Eron ahli andoq motam tuttilarkim, hargiz hech kishi yod bermas. Tarix ahli muttafiqdurlarkim, soch qirqmoq va ko‘k va qaro kiymak ul motamdin qoldi”, – deb xabar beradi bu haqda N. S. tabiatan xursandchilik, aysh-ishratni sevadigan kishi bo‘lganidan S. deganda shodlig-u xursandchilikka ham ishora qilinadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. – Душанбе, 1987.*

H.H., E.O.

SIYOMAK – Ajam shohlarining peshdodiylar sulolasiga mansub hukmdorlaridan biri. Siyomak borasida N. “T.M.A.” asarining “Burung‘u tabaqa peshdodiylardur” nomli birinchi qismida “avval saltanat qilg‘on”, taxt boshqargan hukmdor Kayumarsning tarixi bayonining oxirida bir gap shaklida tilga olgan. O‘qiymiz: “Har taqdir bila podshohlik qoidasi andin burun yo‘q erdi. Damovandni bino qildi. Ammo anda gohi bo‘lur erdi. Dag‘i Istaxrni bino qildi, ammo ko‘prak avqot anda bo‘lur erdi. Ming yashadi va lekin umrining oxirida qirq yil saltanat qildi. Dag‘i Siyomak o‘g‘li Hushangnikim nabirasi erdi, valiahd qilib, vafosiz jahong‘a vido’ etdi”.

Ad: *Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

B.R.

“SIYMNI SOCHQUCHI MINGDIN BIRDUR...” – “N.Sh.” devonidan o‘rin olgan qit’a:

Siymni sochquchi mingdin birdur,
O‘zgalarning ishi keldi termak.

Ul jihatdin budurur odatkim,
Osmoq osondur-u mushkil bermak.

Siym – kumush, aqcha, pul demak. Siymni sochquchi pul va boyligini ayamaydigan, quli ham, ko‘ngli ham ochiq kishi. Bunday odamlar kamyob. N.ning fikrlariga ko‘ra, “mingdin birdur”. O‘zgalar-chi? Ularning ishi sochilganni termak, ya’ni saxiyning oliyhimmatligidan bahramand bo‘lmoq. O‘sha to‘qquz yuz-u to‘qson to‘qqiz (“mingdin bir”ga nisbatan) kimsa siym sochquchilikni odat qilsa ma’qul emasmi? Albatta, yaxshi. Xalqda “mol-u jon” degan ibora bor. Buning ma’nosi “Mol bermoq, jon bermoqday gap” degani.

Ul jihatdin budurur odatkim,
Osmoq osondur-u mushkil bermak.

Saxiy shu odatga qarshi borishga kuch topadi. Uning u-n bermoq emas, olmoq mushkuldir.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилд. – Т., 2011; Ҳаққул И. Касби камол ўзни танишдир. – Т., 2021.*

I.H.

SILSILA (ar.) – 1. Zanjir; tizma; tartib. 2. Tariqat shayxlarining ketma-ket keltirilgan nomlari. N. asarlarida bu so‘z bir necha ma’nolarda

qo‘llangan. Quyidagi baytda S. “zanjir”, majoziy ma’noda “bir-biriga bog‘liqlik” tushunchasini anglatib kelgan:

Doirani juz bu sifat tuzmayin,
Silsilani bir-biridin uzmayin.

Bir o‘rinda “Silsila ahli” deganda tabaqalar, guruhlar ma’nosi nazarda tutilgan: “Hattokim, salotin zamonida ham yana o‘n-o‘n besh sozanda va go‘yanda va xonandakim, ul silsila ahlidin hech qachon hech qaysig‘a dast bergani ma’lum emas”. Quyidagi baytda “Silsila zulf” iborasi orqali soch o‘rimlariga ishora qilingan:

Iloj silsilayi zulfidur jununumg‘a,
Agarchi mushk isidin emganur zaif dimog‘.

N. asarlarida S. ko‘p o‘rinlarda tariqat shayxlarining ketma-ket keltirilgan nomlarini anglatadi. Chunki har bir tariqatga mansub bo‘lgan shayxning Hazrat Rasulullo (s.a.v.)ga bog‘lanadigan S.si bo‘lishi kerak. Tariqat shayxlari orasida uzilish bo‘lmasligi shart. S. zanjirida (ismlarning ketma-ketligida) uzilish bo‘lganda, o‘sha tariqatning faoliyati to‘xtalgan hisoblanadi. Agar kimdir bu tariqatni o‘zicha davom ettiradigan bo‘lsa, bu S. soxta sanalgan. Naqshbandiya tariqatining Bahouddin Naqshbandga qadar S.si quyidagicha:

1. Sayyidi koinot hazrati hazrat Muhammad Mustafo (s.a.v.) (571-632)
2. Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhu (v. 13/634)
3. Salmon Forsiy (r.a.) (v. 35/655)
4. Shayx Qosim ibn Muhammad ibn Abu Bakr roziyallohu anhu (v. 106/725)
5. Imom Ja’far Sodiq (r.a.) (702-765)
6. Sulton Boyazid Bastomiy (v. 261/875)
7. Shayx Abul Hasan Xaraqoniy (v. 425/1033)
8. Xoja Abu Ali Formadiy (v. 471/1078)
9. Xoja Yusuf Hamadoniy (440/1048-535/1140)
10. Xoja Abduxoliq G‘ijduvoniy (v. 575/1179)
11. Xoja Orif Revgariy (v. 660/1262)
12. Xoja Mahmud Anjir Fag‘naviy (v. 685/1286)
13. Xoja Ali Romitaniy Azizon (v. 721/1321)
14. Xoja Muhammad Bobo Sammosiy (taxm.v. 736/1335)
15. Sayyid Amir Kulol (680/1281-772/1370)
16. Xoja Bahouddin Naqshband Buxoriy (718/1318-791/1389)

S. shayxlarining nasabi, irqi, millati, kasb-kori turlicha bo‘lishi mumkin. S.dagi shayxlar yuzma-yuz, qo‘lma-qo‘l ijozat olish orqali omonat vazifani davom ettirganlar. Ba’zan ma’naviy ijozat ham bo‘lgan. M-n, naqshbandiyada Boyazid Bistomiy S. omonatini ma’nan Imom Ja’fari Sodiq (r.a.) ruhoniyatlaridan olgan bo‘lsalar, Abul Hasan Xaraqoniy esa S. omonatini ma’nan Boyazid Bistomiy ruhoniyatlaridan olgan.

N. “N.M.” asarida Buxorodagi yetti pirlar – Xoja Abduxoliq G‘ijduvoniy, Xoja Orif Revgariy, Xoja Mahmud Anjir Fag‘naviy, Xoja Ali Romitaniy Azizon, Xoja Muhammad Bobo Sammosiy, Sayyid Amir Kulol, Xoja Bahouddin Naqshbandlar haqida ma’lumot berar ekan, S. tartibiga rioya qiladi va shundan ham S.ning ma’lum bir ahamiyatga molikligi anglashiladi. N. mazkur tazkirasida Shayx Abu Muso (q.s.)ning “ishqiya silsilasi”dan “Xudoyquli Shayxning ahfod”laridan ekani haqida yozsa, Ilyos Shayxning o‘g‘li Shayxzoda Abulhasan (q.s.)ning silsilasi haqida shunday xabar beradi: “ ...Ilyos Shayxdin so‘ngra bu silsila ahli barcha anga (Shayxzoda Abulhasanga (s.r.) bay’at qilib, irodat toza qilibdurlar”.

“Mavlono Burujiy – Mavlono Sa’diddin Koshg‘ariyning murididur, naqshbandiya silsilasidindur”.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик. 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик, 3-жилд. – Т., 1984; Ҳужвирий. Кашф ул-маҳжуб. – Истанбул, 1996.*

S.R.

SILVESTR de Sasi (Silvestre de Sacy) Antuan Isaak (1758–1838, Parij) – tilshunos, sharqshunos olim. Yakka tartibda Benediktin abbatligida avval arab, suryoniy, ibroniy tillarida ta'lim olgan, so‘ng fors, turk, jami 12 ta tilni o‘zlashtirgan. FA a'zosi (1792), Sharq tillari maktabi (1795), Kollej de Frans (1806)da professor, direktor (1823), Sharq tillari maktabi direktori (1824), Parij universiteti rektori. "Osiyo jamiyati" asoschisi va ilk Prezidenti (1821). "Osiyo jurnali" (Journal Asiatique) noshiri (1822–38). Qirollik kutubxonasi Sharq qo‘lyozmalari boshlig‘i. Arab va fors adabiyoti bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar muallifi. U pedagog sifatida ko‘plab tarjimonlar, sharqshunos olimlar yetishtirgan. Olim butun umri davomida Sharq ilm-fanini o‘rganib, qo‘lyozmalarni tiklagan, izohlagan, sharhlar bitgan. Haririy maqomalari, "Kalila va Dimna", Attorning "Pandnoma", Sa'diyning "Bo‘ston"ini fransuz tiliga tarjima qilgan. S.S. Davlatshoh Samarqandiy va Som Mirzoning fors tilidagi ma'lumotlariga tayanib, Bartelemo d' Erbelo ishini davom ettiradi. Ya'ni N. hayoti va faoliyati haqida batafsil ma'lumot beradi, asarlari ro‘yxatini keltirib o‘tadi. S.S.ning zalvorli tadqiqotlari G‘arbda sharqshunoslik ilmi nufuzini oshirdi. Yevropada sharqshunoslarning ko‘payishi va yangi tadqiqotlarning yaratilishiga zamin yaratdi, N. ijodining Fransiyada o‘rganilishiga hissa qo‘shdi.

Ad.: *Mémoires sur diverses antiquités de la Perse et sur les médailles des rois de la dynastie des Sassanides: suivis de l'histoire de cette dynastie trad. du Persan de Mirkhond / par A. I. Silvestre de Sacy. 1793; Сотимов У. Исследование жизни и творчества Алишера Навои в западно-европейском востоковедении. Автореферат дисс. по филол. – М., 1998.*

O.T.

"SINUQ SAFOLIKI..." – N. "F.K." devoniga kiritilgan qit'alaridan biri:

Sinuq safolki, may durdin ichkali topsang,
Qabul aylamagil jomi saltanat Jamdin.
Ilikka kirsa quruq non, maosh uchun chekma,
Nashot ne'matining minnatini Hotamdin.

Odam dunyoga nega keladi? Hur yashash u-n. N. nazarida qanoat tushunchasi – erkinlik tushunchasidan ajralmasdir. Mana shuning u-n ham ulug‘ shoir she'r, doston va nasriy asarlarida qanoatli bo‘lmoqni qayta-qayta tashviq etadi. Takror-takror qanoat tuyg‘usining xosiyatlaridan so‘zlaydi.

Tarixdan ma'lumki, Jamshid qadimda hukm surgan Eron shohlaridan biri bo‘lgan. U ko‘p ixtirolar qilgan. O‘shalardan biri odam hayoti va olamdagi barcha hodisotlarning sirini avvaldan aks ettiradigan sehrli jomdir. N.ga ko‘ra, qanoat jomi ana shu shuhratli jomdan ham ustundir. Qanoatli odam bir siniq safolga may quyqasini quyib ichish imkoniga ega ekan, u, hatto Jamshid jomini ham qabul qilmasligi kerak. Hotamning himmat-u saxovati asrlar davomida tillarda doston bo‘lib kelgan. Ammo qanoatli zotlarning o‘z dostonlari bor. Shunday bo‘lgach, ular shodlik va xurramlik rizq-u ne'mati u-n Hotam minnatiga chidashlari mumkinmi? Yo‘q, albatta. N. qo‘lingda quruq noning bor bo‘lgach, tirikchilik yoxud maishat tashvishi u-n Hotam minnatini ham bo‘yningga olma, deydilar:

Ilikka kirsa quruq non, maosh uchun chekma,
Nashot ne'matining minnatini Hotamdin.

N.ning bunday nasihatlari kishini tamagirlik va qanoatsizlik hirslaridan muhofaza etadi. Va yurakda qandaydir osoyishtalik, xotirjamlik tuyg‘ularini uyg‘otadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011.*

I.H.

SING‘AN SAFOL (eski safol, ko‘hna safol, safol) − N. ixtiro qilgan tasavvuf istilohlaridan biri. Akad. A.Rustamov: “Singan safoldan murod, birinchidan, siniq ko‘ngil, ya’ni dardli ko‘ngil, ikkinchidan, faqr, ya’ni boylikka hirs qo‘ymaslikdir. Haqiqat mayining ayshini surish uchun ortiqcha mol-u mulk, oltin-kumush bo‘lishi shart emas”, – deb yozgan edi. N. “G‘.S.”dagi ilk g‘azal tahlili misolida N.Komilovning fikricha esa, S.S. ishq mayidan mast xarobotiylarni anglatib keladi. U Yassaviy ijodidagi “ko‘ngli butun” va “ko‘ngli siniq” timsollarining mohiyatini tushuntirar ekan, “ko‘ngli butunlik – ilohiy jazba va ishqdan bexabarlik, ko‘ngli siniqlik esa, ilohiy ishq shavqiga tushgan odam qalbi”ni bildirib kelishi haqidagi fikrni ilgari suradi. A. Qurbonov N.ning ko‘plab bayt-u g‘azallari tahlili misolida bu iboraning ma’no doirasini ancha keng va chuqur tekshiradi. Tahlillar natijasida shoir she’riyatida S.S. rang-barang ma’nolarda qo‘llanadi; asosan, Jamshid jomiga zid qo‘yiladi: goh S.S. gadolik, jomi Jam shohlik, o‘z navbatida, gadolik komillik, shohlik esa noqislik ramzi bo‘lsa, goh buning aksini bildiradi; jomi Jamshidning jufti sof may bo‘lsa, S.S.ning jufti – durd, may quyqasi. Uning xulosasiga ko‘ra: “Sof may ham, loyqa may ham so‘fiyona istilohda ilohiy tajalliy bo‘lsa ham, ularning bir-biridan farqi bor: sof may sifotiy tajalliy bo‘lib, sifotiy tajalliy Haq yetti zotiy sifatining ko‘ngilda jilva qilishidirki, bu darajaga yetishish u-n solik foniy bo‘lishi lozim. May loyqasi esa osoriy tajalliy bo‘lib, osoriy tajalliy ilohiy jamolning mulk olami, ya’ni biz yashab turgan olam ashyolarida jilva qilishidir. Soddaroq qilib aytadigan bo‘lsak, sof may va may loyqasi ilohiy tajalliyning ikki ko‘rinishi – ikki bosqichi bo‘lib, soy may ilohiy jamolning olami a’lo – yuksak olamda, loyqa may esa ilohiy jamolning olami suflo – quyi olamda jilva qilishidir. Bundan shunday xulosa qilish mumkin: singan safol – zohiriy olamga xos husn jilvalangan ko‘ngil...

S.S. va jomi Jam g‘oyat serma’no timsollardir. Ularni gado va shoh deb ham, tolib va orif, xira va pok ko‘ngil deb ham, shu bilan birga, N. asarlarida yetakchi o‘rin tutuvchi ishqning ikki turi: ishqi majoziy va ishqi haqiqiy deb ham aytish mumkin.

S.S. N. ijodida ko‘pincha ilohiy ishq mayidan mast xarobot rindlari ahvolini anglatadi:

Maqom etsa tufroq uza − taxti Jamshid,
Safoliki, ul may ichar jomi Jamdur.

Ibrohim Adham, Boyazid Bistomiy, Robiya Adaviya, Ahmad Yassaviy, Abusaid Abulxayr, Sulaymon Boqirg‘oniy kabi so‘fiylar hayoti va faoliyatida faqirlik, xoksorlik, siniqlik asosiy o‘rin tutadi. “Xudo siniq ko‘ngillardadir”, − deydi mashhur avliyo va mutasavvif shoir Farididdin Attor. N. ijodi ham bundan mustasno emas. Bu o‘rinda shoirning har bandi:

Xarobot aro kirdim oshuftahol,
May istarga ilgimda sing‘an safol,

bayti takrorlanib keladigan tarje’bandini eslash kifoya. Tabiiyki, bunda tasavvufiy ma’nodagi dard va faqr xususida so‘z boradi. M-n:

Ey xush ul maykim, anga zarf o‘lsa bir
sing‘an safol,
Jom o‘lur getinamo, Jamshid ani
ichkan gado.

Baytning tasavvufiy mazmuni quyidagicha: “Ilohiy ishq mayiga tashna, ma’rifatdan boxabar dardli ko‘ngil (idish) bo‘lgani yaxshi − o‘shanda ilohiy ishq mayi poklagan qalb ko‘zguday porlab, butun olamni o‘zida aks ettiradi, bu maydan ichsa, gado ham Jamshidday boybadavlat va shon-shavkatli podshoga aylanadi”. Ya’ni Haq ma’rifatidan bahramand ko‘ngilning qiyosi yo‘q bo‘lib, u butun olamni ko‘zguday o‘zida aks ettiradi. Ma’lum bo‘ladiki, bu bayt ilohiy ma’rifat nuridan poklangan oshiq ko‘nglining ko‘zguday porlab, Jomi jahonnamoga aylangani-yu, bu qalb sohibining Jamshid maqomiga yetgani haqida ekan.

Yana bir baytida darbadar bo‘lib, qumga safol olgancha mug‘ ko‘yida zorlik qilsam, zuhddan yuz karra ortiqdir, deydi shoir:

Ey Navoiy, zuhddin yuz qatla ortuq, darbadar
Bir safol ilgimda mug‘ ko‘yida qilsam zorlig‘.

May to‘la S.S. Jamshid jomidan afzal, uni ichib, mast bo‘lgan gado Jamshiddan ustun:

Men gado mast-u xarobot aro ilgimda safol,
Boqsa Jamshid bu iqbolima bo‘lg‘ay hosid.

Xuddi u dunyoda shoh-u gado teng bo‘lganidek, dayrda ham S.S. b-n oltin qadah aro farq yo‘q:

Dayr ichra yo‘q safol ila oltun qadahda farq,
Shoh-u gado teng o‘ldi ajab korxonadur.

Ma’lum bo‘ladiki, S.S.ning ma’no doirasi keng bo‘lib, u siniq ko‘ngil; dardli ko‘ngil; ilohiy ishqdan boxabar ko‘ngil; faqr; qadah, jom timsoli bo‘lib keladi. Bu istiloh vositasida shoir ilohiy ishqdan bexabar va boxabar kishilarni o‘zaro zid qo‘yib tasvirlaydi. Jamshid jomiga qarshi qo‘yilgani, gohi hatto undan ustun sanalgani b-n oxir-oqibatda S.S. ham Jamshid jomiga aylanadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Рустамов А. Шоирнинг биринчи ғазали // Шарқ юлдузи. 1987, № 2; Комилов Н. Комиллик тариқати // Тафаккур. 1998, № 3; Қурбонов А. Жоми Жамдурур синғон сафоли // Жомий ва ўзбек адабиёти. – Т., 2005; Очилов Э. Бир ҳовуч дур. – Т., 2011; Асадов М. Соқийнома: тарих ва поэтика. – Т., 2020.*

E.O.

“SIROJ UL-MUSLIMIN” (Musulmonlar chirog‘i) – N.ning aqida va shariat ahkomlarini nazmiy usulda bayon qilgan manzumasi (905/1500). Bu asar ommaga mo‘ljallangan, turkiy elatlarning tushunishi oson sodda uslubda, hanafiy mazhabi va motrudiya e’tiqodiga muvofiq bitilgan. Muallif hamd-u na’t mazmunidagi 5 baytli muxtasar muqaddimadan so‘ng asarning yozilish sababini bayon qiladi. Kunlardan bir kun ko‘pchilik ichida bir odam N. solgan qaysidir “oliy raboti” (katta mehmonxona yo hashamatli karvonsaroy) haqida gapirib, undagi musofirlarga mo‘ljallab solingan xonalarni maqtaydi. Shunda o‘sha yerda podshoga yaqin bo‘lgan, “bazmning nuktadon”laridan biri aytadiki: Agar u (Navoiy) bir uyni tuzatgan bo‘lsa, nazmining ta’siri b-n ming uyni buzganidan nima foyda? Uning she’rlarini o‘qiganlar doim oshiq-u mast bo‘lib yuradilar. Islom-u din uyini vayron qilib, xayriya binosini qursa, hisobga o‘tarmikin, inobatga olinarmikin? N. bu so‘zdan juda ta’sirlanadi, “Chu bildim, chin demish, dam urmadim hech”, deydi. Shundan keyin u sodda, turkiy omma tushunadigan tarzda “din-u islom uyini ma’mur” qiladigan, din ahliga zaruriy bo‘lgan aqida, islom asoslari, farz-u vojib sunnatlarni, ularga tegishli bo‘lgan masalalarni bayon qiladigan bir asar yozishni ko‘ngliga tugib qo‘yadi. Ammo turli tashvishlar b-n mashg‘ul bo‘lib, ishga kirisholmaydi. Ittifoqo, bir kuni o‘sha davrning “ma’nidin ogoh” bo‘lgan Xoja Ahrori Valiyning shogirdlaridan biri Samarqanddan Hirotga keladi. N. uning suhbatiga boradi. U odam suhbat asnosida Xoja Ahrori Valiyning N. haqida aytgan so‘zlarini unga yetkazadi:

Kim, uldur peshvoyi ahli irshod,
Bu irshod etti sandin aylabon yod.
Kim, ul ko‘p nazm derga bo‘ldi rog‘ib,
Bu yanglig‘ nazm ham erdi munosib.

Xoja Ahrorning bu so‘zlari N.ga turtki bo‘lib, ko‘nglida anchadan beri tugib yurgan rejasini, diniy mavzuda asar yozish istagini amalga oshirishga kirishadi.

Demish: ne sud gar bir uyni tuzmish
Ki, nazmi shaynidin ko‘p uyni buzmish...

Solib islom-u din uyiga oshub,
Binoyi xayr butkarmak ne mahsub.

Tushub bu nuktadin jismim aro pech,
Chu bildim chin demish dam urmadim hech.

Dedimkim, aylayin bir nusxa mastur
Ki, bo‘lg‘ay din-u islom uyi ma’mur...

Ham etkaymen burun sharhi aqoyid –
Ki, islom ahlig‘a bergay favoyid.

N. asarida shariat hukmlari ikkiga: aqida va amal qilish lozim bo‘lgan islom hukmlariga bo‘linishi va ayni paytda ularning mazmun va talabida farqlar borligini ta’kidlab o‘tadi:

Birisidin murod o‘ldi aqida,
Amal matlub bo‘ldi ul birida.

Demak, birinchisi – aqida, ikkinchisi – amal qilish lozim bo‘lgan islomiy shartlar va hukmlar. Aqida (ar.) “aqd” – bir narsani ikkinchisiga mahkam bog‘lash ma’nosidadir. Ko‘plikda “aqoid” deyiladi. Aqida istiloh sifatida Islom dinidagi ishonilishi va qalban tasdiq etilishi kerak bo‘lgan zaruriyoti diniyalarni bildiradi. Aqida dinimizning asosini, tamalini tashkil etadi. U islomiy ilm sohasi sifatida iymon masalasining asosiy hukmlari va qonuniyatlarini xos shaklda tushuntirib beradi. Aqida aniq ishonilgan narsa, iymon va uning tushunish shaklidir. U ibodatni emas, iymonni, amalni emas, iymon talablarini asos qilib olgan islomiy tushuncha va hukmlar majmuasidir. Qisqa qilib aytganda, aqoid Qur’on va sunnat doirasida Islom dinining iymon asoslaridan so‘z yuritadigan ta’limotdir, shar’iy e’tiqodiy hukmlardir. N. ham islom dinida aqidaning birlamchi va asos ekanini inobatga olib, avvalo, e’tiqodiy masalalarni bayon qiladi. Bu yo‘nalishda musulmon u-n eng birinchi farz bo‘lgan narsa, u oqil va balog‘atga yetgandan keyin Allohga iymon keltirishi, uning yakka-yagonaligini til b-n aytib, dil b-n tasdiqlashi lozim:

Burun ul nimakim, farz etti Yazdon,
Erur oqilg‘a bolig‘ bo‘lg‘ach iymon.
Aning ma’nisidur til birla iqror,
Ko‘ngul birla inonmog‘lig‘ dag‘i bor.

N. iymon keltirish kerak bo‘lgan olti narsa: Allohga, farishtalariga, kitoblariga, payg‘ambarlariga, qiyomat kuniga, yomonlik-u yaxshilikning taqdirdan ekaniga e’tibor qaratgandan so‘ng, Allohning sakkiz sifati, qabr azobi, Munkar Nakir savoli, Sirot ko‘prigi, amallar tortiladigan tarozi, do‘zax, jannat, Allohni ko‘rish, shafoat, mo‘jiza, karomatlar haqida ham tushuncha beradi, ularga ham so‘zsiz ishonish kerakligini ta’kidlaydi. Shariatning buyruq va taqiqlari insondan soqit bo‘lmasligi, folchi va kohinlarning gapini tasdiqlash ham kufr ekani aqida masalalariga tegishlidir, deydi. Shundan keyin iymonni kasb etgan, o‘zlashtirgan kishi islomni bilishi lozim, – deydi muallif. Va kitobning ikkinchi qismi islom arkonidan, islomning besh shartidan so‘z yuritadi:

Binosin anglag‘il islomning besh,
Ani bilmakka bo‘lg‘il fikratandesh.

N. islomning besh ruknini yoritishga kirishar ekan, har bir ruknga tegishli bo‘lgan fiqhiy masalalarga to‘xtaladi. U ikkinchi rukn bo‘lgan namoz haqida so‘z yuritishdan oldin, avvalo, tahoratning to‘rtta farzi, sunnatlari, mustahablari, noqizlari (buzadigan narsalari), g‘uslni vojib qiluvchi sabablar, g‘uslning uchta farzi, sunnatlari, tayammumning to‘rtta farzi, noqizlariga munosabat bildiradi, keyin namozning zikriga o‘tadi. Avvalo namoz b-n bog‘liq oltita “xorij” (tashqi) va oltita “doxil” (ichki) farzlarni bayon qiladi.

Namoz ichra faroyiz, ey xiradmand,
O‘n ikki nima aylabdur Xudovand.

Namozingga alardin olti doxil,
Yana oltisi xorij keldi hosil.

Namozdan tashqaridagi farzlar: tahoratli va pokiza bo‘lish; namoz o‘qiladigan joyning pok bo‘-

lishi; avrat a’zolarning toza libos b-n berkitilgan bo‘lishi; namozni o‘z vaqtida o‘qish; qiblaga qarab o‘qish; niyat qilishdir. Namoz ichkarisidagi oltita farzlar: Avvalgi takbir (takbiri tahrima)ni aytish; qiyomda tik turish; namoz joyiz bo‘ladigan darajada qiroat qilish; ruku’ qilish (egilib, tizzani ushlab, ma’lum tasbehlarni aytish); sajda qilish; oxirgi qa’dada (“tashahhud”ni o‘qish miqdoricha vaqt) o‘tirish. Shuningdek, namozning vojiblari, sunnatlari va mustahablariga ham bir-bir to‘xtaladi. Farz va sunnat namozlarining bir kecha-yu kunduzdagi adadlari, farz, sunnat va nafl kabi namoz turlariga tegishli bo‘lgan hukmlarning talab va qoidalarini ko‘rsatib o‘tadi. Yana Islomning 3-rukni bo‘lgan zakot, qachonki, kishining moli nisobga yetsa, qirqdan birini haqdorga ajratishi farz bo‘ladi:

Nisob o‘lsa kishi molig‘a zohir,
Ayirmoq farz keldi qirqdin bir.

N. zakotni kimlarga va qaysi mollardan berishni va qaysi mollardan berish lozim emasligini aytib o‘tadi. Jumladan, kiyib yuriladigan kiyim-kechaklar, miniladigan ot-ulov, zaruriy ehtiyoj hisoblangan mis idish-u asbob-anjomlardan zakot berilmaydi, ular zakot beriladiga mol-mulk toifasiga kirmaydi. Zakot berishlik baloni rad qiladi va qiyomatda yuk yengil bo‘lishi (zakot tufayli azobga qolmaslik)ga sabab bo‘ladi:

Adosida baloning raddin ayla,
Yana qilmoq sabukbor o‘zni tongla.

N. islomning to‘rtinchi rukni bo‘lgan savm (ro‘za)ning bir oy ramazon oyida tutilishi, unga niyat qilish, ertadan oqshomgacha yeb-ichmaslik va jimo’ qilmaslik shartlari (farzlari) borligini aytadi. Ro‘zani buzadigan va buzmaydigan narsalarni, kafforat va qazo lozim bo‘ladigan holatlarni tushuntirib o‘tadi. N. islomning 5-rukni bo‘lgan haj amalining kimga va qachon farz bo‘lishiga to‘xtaladi. Ular: haj qilish u-n ko‘zlangan joyga borishga qodir bo‘lish; yo‘lning tinch-omon bo‘lishi; bo‘ynida qarz bo‘lmaslik; haj davomida ahli ayolning (oilaning) moddiy jihatdan ta’minlangan bo‘lishi; hajga monelik qiladigan biror kasallikning bo‘lmasligi. Mazkur moneliklar yo‘q bo‘lsa, darhol hajga otlanish farz bo‘ladi:

Bu mahzurot gar yo‘q tebra filhol,
O‘zung-u do‘st ko‘yi tavfig‘a sol.

Shoir kitobning xotima qismida yozishicha, 905-(1499-1500) y. kunlarning birida odob-u tavozudan bahramand bir kishi majlisda fiqhiy masalalardan bahs qilayotgan bo‘ladi va bu yigitning qobiliyatli ekani ko‘rinib turadi. N. shunda cho‘zilib kelayotgan ishini yakunlashni, kitobini o‘sha yigitga va shu bahona b-n boshqalarga manfaat yetkazishiga umid qilib, oxiriga yetkazadi. N. taqdir bu kitobning boshlanib, yakuniga yetishiga yuqoridagi uchrashuvning sabab bo‘lganini aytadi va kitobiga “S.M.” (“Musulmonlar chirog‘i”) deb nom qo‘yganini, bu kitobni o‘qib, ko‘ngli yorishgan kishilar uni duo b-n eslab, ruhini shod etishlarini istab qoladi.

Chu ravshan aylar islom ahli zotin:
“Siroj ul-muslimin” qo‘ymishmen otin.

Umidim ulkim, har kim o‘qug‘ay,
Munung nuri bila ko‘ngli yorug‘ay.

Duo birla meni ham aylagay yod,
Ravonim ul duodin aylagay shod.

“S.M.” e’tiqod mavzusiga doir asar sifatida N.ning diniy sohada ham komil bo‘lgani, diniy ilmlarni chuqur egallaganidan dalolat beradi. Asarga xos asosiy xususiyat unda diniy tushunchalar, aqidalar va shariat talablarining she’riy shaklda nisbatan sodda til b-n, ortiqcha tafsilotlarsiz, lo‘nda qilib, siqiq misralarda ifoda etilganini ko‘ramiz. M-n, Allohning sakkiz sifati haqida N. shunday yozadi:

Kim, ul sekkiz erur Haqning sifoti,
Ki, boridin munazzah qildi zoti.

Erur Xayy-u Alim-u yana Qodir,
Murid-u ham Sami' o'ldi va nozir.

Takallum vasfig'a dag'i muvofiq,
Yana ibod af'olig'a Xoliq.

U asar muqaddimasida shunday niyat qilgan:

Bayon qilg'aymen andoq ravshan-u pok,
Ki idrok etkan oni xayli atrok.

Muallif o'z niyatini to'liq amalga oshirgan va ona tilida din va e'tiqod masalalarining chiroyli, sodda, tushunarli she'riy talqinini yaratgan. N. bu b-n o'zbek tilida shunday asarlar yozish an'anasini ham boshlab bergan dastlabki fiqhiy risolalardan biri sifatida e'tiborga ega va u keyingi davrlarda davom ettirildi. Boburning "Mubayyin", So'fi Olloyorning "Sabot ul-ojizin" asarlari shundan dalolat beradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Сирож ул-муслимин. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Навоийдан чу топқайлар навое. Т., 2014; Огоҳ Сирри Лаванд. Алишер Навоий. IV жилд. – Анкара, 1968.*

S.G'., S.R., E.O.

SIROJIDDINOV Shuhrat Samariddinovich (1961, Samarqand) – yirik adabiyotshunos, n. shunos, matnshunos olim. 1984-y. Toshkent Davlat universiteti (hozirgi O'zMU)ning Sharq fakultetini tugatgan. F.f.d-ri, akad. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi (2021). Ozarbayjon Fanlar akademiyasi faxriy doktori (2020), Dobrolyubov nomidagi Nijniy Novgorod davlat lingvistika universiteti faxriy prof. (Rossiya, 2021), Nyu-York Fanlar akademiyasi a'zosi (2021), Kaliforniya Fanlar akademiyasi a'zosi (2021), Yevroosiyo turkiy tadqiqotlar instituti ilmiy maslahatchisi (Koreya, 2022), Qirg'iztonning Chingiz Aytmatov nomidagi mukofoti sohibi (2023).

1998-y.da O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasida tahsil olgan.

2002–2003-yy.da Oksford universitetida bir yillik malaka oshirish kursini o'tagan. 2016-y. dan hozirgi vaqtgacha Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti rektori.

"Yoshlik", "Звезда Востока", "Imom Buxoriy saboqlari" ilmiy-ma'rifiy jurnallari tahrir hay'atining a'zosi, "Xorijiy filologiya" ilmiy jurnalining bosh muharriri.

S.Sh. 150 dan ortiq ilmiy va o'quv-uslubiy ishlari e'lon qilingan, jumladan, 5 ta risola, 3 ta o'quv qo'llanma, 8 ta monografiya, 100 dan oshiq ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar muallifidir.

Asosiy ilmiy ishlari o'zbek mumtoz adabiyoti, manbashunoslik va matnshunoslik, tarjima nazariyasi va jahon adabiyoti muammolariga bag'ishlangan. Uning "O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari" monografiyasi (2011) bugungi kunda o'zbek mumtoz adabiyotini jahon adabiyoti b-n uzviylikda tahlil qilish masalalariga bag'ishlangan bo'lib, universitetlarning filologiya fakultetlarida, ilmiy-tadqiqot ishlarida amaliyotga joriy etilmoqda. "Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy tipologik, tekstologik tahlili" monografiyasi (2012) natijalari o'zbek adabiyotini yangicha qarashlar asosida o'rganish, Navoiy hayotini o'rganayotgan chet el markazlarida amaliyotga tatbiq qilinmoqda. "Badiiy tarjima asoslari" (2011) respublikada mustaqillik yillarida amalga oshirilgan badiiy tarjima bo'yicha birinchi darslikdir. "Navoiyshunoslik" (2018) darsligi (hammuallifllikda) oliy o'quv yurtlarida Alisher Navoiy hayoti va ijodini o'rganish va o'rgatishda nihoyatda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Olimning N. faoliyati, ijodiy va ilmiy merosi tadqiqiga bag'ishlangan "Alisher Navoiy aqidalari", "Mir Ali Shir Nava'i the Great", "Navoiy navosidan bahra olib", "Na-

vobaxsh baytlar jozibasi”, “Amir Alisher”, “Ilm va tahayyul sarhadlari”, “Navoiy zamondoshlari e’tirofida” kitoblari, matnshunoslikka oid “Matnshunoslik saboqlari”, “O‘zbek matnshunosligi qirralari”, shuningdek, “Hijriy va milodiy yillarni o‘zaro tabdil qilish usullari”, “Islom falsafasiga kirish: Kalom ilmi”, “XV–XVI asrlar tarixiy va tazkira-esdalik asarlarida Alisher Navoiy hayoti va faoliyati talqini”, “Религии мира”, “Mavlono Lutfulloh”, “So‘fi Olloyor ilohiyoti”, “She’riyatda inson ruhiy kamoloti talqini”, “O‘rta osiyolik allomalarning falsafiy qarashlari”, “Ilm va taxayyul sarhadlari”, “Bag‘rikenglik – dinlarning ma’rifiy asosi” va tarjimashunoslikka oid “Badiiy tarjima asoslari” kabi qator asarlari ilm-fan rivojiga xizmat qilmoqda. 1991-y.da akad. B.Valixo‘jayev rahbarligida “XIX asr Kattaqo‘rg‘on shoirlari ijodida Alisher Navoiy an’analari” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini, 1998-y.da “Alisher Navoiy hayoti va faoliyatiga oid XV–XIX asrlarda yaratilgan fors manbalari” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. 2023-yilda ilm-fan rivojiga qo‘shgan xissasi uchun O‘zR FA akademigi unvoni berilgan. S.Sh.ning doktorlik ishi asosida nashr etilgan “Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tadqiqi” monografiyasi mustaqillik yillarida o‘tmish mutafakkirlarimizning hayoti va ilmiy-ijodiy faoliyatini tarixiy va mafkuraviy soxtalashtirish ko‘rinishlaridan tozalash, ularning jahon madaniyati tizimidagi maqomini real va haqqoniy baholash hamda belgilash bo‘yicha O‘zbekiston davlati olib borayotgan siyosatni amalda ko‘rsatib bergan yirik fundamental asarlardan biridir. Ushbu monografiya uzoq yillik tadqiqot ishlari samarasi bo‘lib, 1991–1998-yy.da Samarqand Davlat universiteti, Abu Rayhon Beruniy nomidagi O‘zR FA Sharqshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti qo‘lyozmalari fondida bajarilgan. Olim mazkur tadqiqoti u-n O‘zbekiston Respublikasining Adabiyot sohasida 1-darajali Davlat mukofoti laureati bo‘lgan (2013).

Monografiyaning bosh maqsadi Alisher Navoiy fenomeni, uning jahon madaniyati rivojida tutgan o‘rni va maqomi, shoirning shaxsiyatiga bo‘lgan munosabatlar tarixi, turli yondashuvlar mohiyatini ulug‘ mutafakkirning o‘z davridan boshlab, hozirgi davrgacha Markaziy Osiyo, Eron, Turkiya va Hindistonda yaratilgan forsiy va turkiy qo‘lyozma asarlar, o‘zbek, rus va ingliz tillarida olib borilgan zamonaviy tadqiqotlar asosida o‘zaro qiyoslash va tanqidiy qayta o‘rganib chiqishga bag‘ishlangan.

Kitobda ilmiy kuzatishlar uch yo‘nalishda olib borilgan. Birinchi yo‘nalish sof manbashunoslik va tekstologik tahlillardan iborat. Bu jarayonda n.shunoslikda birinchi marta N. davridan hozirgi paytgacha shoir haqida ma’lumot berilgan barcha asarlarning ro‘yxati tuzilib, o‘rganib chiqilgan. XV asrning 2-yarmidan XX asrgacha yaratilgan manbalardan shoir hayoti va faoliyatiga doir 100 ga yaqin qo‘lyozma asar va ularning 300 ga yaqin turli qo‘lyozma va toshbosma nusxalari o‘rganilib, qiyosiy-tanqidiy, tipologik-tekstologik mezonlar ostida jiddiy tekshirishdan o‘tkazilgan. Natijada, N. haqida mavjud ma’lumotlarning davriy holati va ko‘rinishlari ochib berilib, bugungi kunda tasavvurimizda qotib qolgan ma’lumotlarning asl manzarasi qanday bo‘lgani ko‘rsatib berilgan. Qo‘lyozma asarlardan joy olgan to‘qima ma’lumotlarning paydo bo‘lishi va XX asrga qadar yashovchanlik sabablari, hududiy tarqalish va o‘zgaruv darajalari birma-bir isbotlangan. Ikkinchi yo‘nalishda o‘tmishda sho‘ro mafkurasi tazyiqi ostida N. hayoti va ijodini o‘rganish jarayonida yuzaga kelgan biryoqlamachilik, soxtalashtirish ko‘rinishlarini jiddiy tanqidiy o‘rganish, ulug‘ shoir tarjimayi holi va dunyoqarashi masalalarini ko‘p sonli birlamchi qo‘lyozma asarlardan obyektiv va xolis ma’lumotlar asosida tiklash ishlari olib borilgan.

Uchinchi yo‘nalish XV-XIX asrlarda Markaziy Osiyo, Eron, Turkiya va Hindistonda Navoiy shaxsiyatiga munosabat masalasi, turli davrlarda yashab ijod etgan mualliflarning buyuk mutafakkir shoir shaxsiyatiga yondashish tamoyillari, obyektiv va subyektiv talqinlar hamda ularni yozma adabiyotga kiritishga sa-

bab va asos bo‘lgan omillarni o‘rganish kabi ilmiy kuzatishlardan iborat. Bu yo‘nalishdagi ishlar natijasida shu davrgacha noma’lum bo‘lgan o‘nlab yangi ma’lumotlar, madhiyalar, ta’rixlar topilib, ilmiy iste’molga kiritilgan. Ushbu ma’lumotlar N. bibliografiyasini tiklashdagi eng muhim yutuqlardan biridir. “Amir Alisher” (2023) kitobi esa ulug‘ mutafakkir hayoti, faoliyati va tarjimayi holiga doir eng yangi qarashlarni o‘zida jamlagan muhim tadqiqot sifatida n.shunoslikda alohida o‘rin tutadi.

Ad.: *Сирожиддинов Ш. Навоий замондошлари эътирофида. – Самарқанд, 1996; Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий: Манбаларнинг қиёсий-типологик, текстологик таҳлили. – Т, 2011; Сирожиддинов Ш., Юсупова Д., Давлатов О. Навоийшунослик (дарслик). 1-2-китоблар. – Т., 2018; Сирожиддинов Ш. Амир Алишер. – Т., 2018.*

M.A.

“SITTAYI ZARURIYA” (Olti zaruriy qasidalar). N.ning fors tilida yozilgan 6 qasidadan iborat asari. N. turkiy “Hiloliya” qasidasi b-n bir qatorda fors tilida “S.Z.” va “Fusuli arbaa” nomli qasidalar ham yozgan. Bu qasidalar shakl va mazmun, balog‘at va fasohat jihatidan yuksak ekani, badiiy mahorat b-n yozilgani o‘z davridayoq e’tirof etilgan. N.ning ustozi va piri Abdurahmon Jomiy “Bahoriston” tazkirasida N. ning “Tuhfat ul-afkor” qasidasida “ajib mazmun va nozik xayolotga ega baytlar juda ko‘p”ligini ta’kidlab o‘tgan.

N. “M.L.” asarida forsiy oltita qasidasiga to‘xtalib, bu qasidalarning mavzusi haqida: “Bu olti qasida hamd va na’t va sano va mav’izotdur va ahli tasavvuf va haqiqat tili bila ma’rifat”, – deb yozgan edi. Demak, qasidalarda diniy, falsafiy va axloqiy qarashlari o‘z ifodasini topgan. Shoir qasidalar debochasida yozishicha, Abdurahmon Jomiy unga fors tilida ham ijod qilishni va bu tilda yozgan qasidalarini jamlashni tavsiya qiladi. Lekin bu ish ba’zi sabablarga ko‘ra hazrat Jomiyning vafotlaridan so‘ng 902-hijriy qamariy (1496-milodiy) yil Sulton Husayn Boyqaro buyrug‘i b-n amalga oshadi. N. “S.Z.”ning debochasida hamd-u na’tdan keyin, Sulton Husayn Boyqaro va Jomiy b-n bo‘lgan iliq munosabatlariga ham to‘xtaladi. So‘ngra shunday fikrlar bildiradi: “... va (Allohning) yordam-u tavfiqi va saodatli ko‘magidan keyin 902-hijriy yil bir necha qasidalarning qoralamasini yozdim. Bunday nazmlarning yuzaga kelishi mazkur uslub (qasidago‘ylik)ga loyiq va satrlarining yozilishi bu uslub tamoyillariga munosib edi. Son jihatidan ular olti tarafga muvofiq keldi”. “S.Z.” debocha va 6 qasidadan iborat. Debochada “S.Z.”ning tuzilish sababi, qasidalarning joylashtirilish tartibi va ularning mavzulari ko‘rsatilgan. Jumladan, Alloh taolo hamdiga bag‘ishlangani u-n 1-qasida “Ruh ul-quds” (“Muqaddas ruh”), Muhammad (s.a.v.) na’ti va madhini o‘z ichiga olgani jihatidan 2-qasida “Ayn ul-hayot” (“Hayot chashmasi”), Amir Xusrav Dehlaviyning “Bahr ul-abror” (“Yaxshilar dengizi”) va Abdurahmon Jomiyning “Lujjat ul-asror” (“Sirlar dengizi”) falsafiy qasidalariga tatabbu’ ekanligi tufayli 3-qasida “Tuhfat ul-afkor” (“Fikrlar tuhfasi”), foydali va ibratli pand-u nasihatlari dil ahli va riyozat ahliga ruhiy-ma’naviy oziq bo‘lsin degan niyatda 4-qasida “Qut ul-qulub” (“Qalblar ozig‘i”), Husayn Boyqaro ta’rifiga – uning bergan ne’matiga shukr etish, davlati poydorligini duo qilishni ko‘zda tutgani u-n 5-qasida “Minhoj un-najot” (“Najot yo‘li”), Amir Xusrav Dehlaviyning “Mir’ot us-safo” (“Soflik ko‘zgusi”) qasidasiga javob tariqasida yozilganligi sababli 6-qasida “Nasim ul-xuld” (“Jannat nasimi”) deb atalgan. Bu qasidalardan “Ruh ul-quds” va “Ayn ul-hayot” N.ning o‘z ijodiy kashfiyotlari bo‘lib, qolganlari o‘zining buyuk salaflariga tatabbu’ hisoblanadi. N. debochada har bir qasidani qaysi shoirga tatabbu’ qilgani, mavzu yo‘nalishi va yozilish tarixi haqida ma’lumot beradi. Ulug‘ shoir fors adabiyotining zabardast so‘z ustalari qasidalariga yuksak mahorat b-n tatabbu’ bitgan. Shoir umrining so‘nggi yillarida yozilgan bu qasidalarda uning bor diniy

va tasavvufiy bilimi, falsafiy va axloqiy qarashlari hamda hayotiy tajribalari o‘z ifodasini topgan. Bu qasidalarda, avvalo, Yaratuvchini tanish va uni sevishga, payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ga ergashishga, axloqan pok bo‘lishga da’vat etiladi. Alloh insonni mukarram xilqat qilib yaratganligi, Yaratuvchining irodasi b-n har bir ashyoda hikmat, san’at va mutanosiblik borligi, dunyoning foniyligi-yu oxiratning boqiyligi, iymon va diyonat b-n bog‘liq teran tushunchalar, boqiy hikmatlar o‘rin olgan.

N. har bir qasidasida, avvalo, insonni hushyorlikka chaqiradi. Odamning asl dushmanlari – nafsi ammora, Shaytoni la’in va foniy dunyoning hoyu havaslari ekanligidan ogohlantiradi. Ibodatlarni sidq ila bajarish, gunohlardan saqlanish va axloqni go‘zallashtirish b-n Haq taologa qurbat hosil qilishni, bir piri komil rahnamoligida sayr-u suluk yo‘llarini ixlos va sabot b-n bosib o‘tib, diyonatli va mahbub inson bo‘lishni uqtiradi. Xulosa qilib aytganda, qasidalar insonni ilm va ma’rifatli, adabli va muruvvatli, zuhd va taqvoli, oshiq va orif qilib tarbiyalashga qaratilgan.

Ulug‘ shoir butun koinotni harakatga keltirib turgan Ilohiy nizom, yaratiqlarni uzviy bog‘lovchi qonuniyatlar va tartibotlarni sinchkovlik b-n kuzatadi hamda ularni badiiy san’atlar va timsollar vositasida mohirlik b-n ifodalab, kitobxonni fikr-u mushohada yuritishga undaydi. Shoir qasidalarida shariat va tariqat talablariga rioya qilishga chaqiragan. Uning qasidalarida naqshbandiylik ruhi chuqur iz qoldirgan.

“Ruh ul-quds” (132 bayt) va “Qut ul-qulub” (120 bayt) hazaji musammani mahzuf), “Ayn ul-hayot” (106 bayt) va “Tuhfat ul-afkor (99 bayt) ramali musammani maqsur, “Minhoj un-najot” (138 bayt) va “Nasim ul-xuld” (129 bayt) hazaji musammani solim vaznida yozilgan.

“S.Z.” qasidalarining har biri alohida xususiyat va uslubga ega: birida qiyosiy tashbehlar, yana birida esa tasviriy va tahliliy usul yetakchilik qiladi. M-n, “Tuhfat ul-afkor”da tamsil keltirish, arab harflari b-n so‘z o‘yini qilish (kitobat san’ati) asosiy o‘rin egallaydi. Har bir baytning 1-misrasidagi fikr 2-misrada bir tashbehiy misol b-n isbot qilib boriladi.

“Ruh ul-quds” samoviy va yerdagi hodisalarni ketma-ket bayon etish, bu hodisalarning ilohiy qudrat natijasi ekanini tafakkuriy tahlil b-n ochib berish orqali yaratilgan bo‘lsa, “Ayn ul-hayot” qasidasida ham tamsil, ham bayon, ham ko‘tarinki ruhdagi tasvirlar bor. “Minhoj un-najot” esa ehtiros va zamirida tanbeh – nasihat ohangi bor til b-n yozilgan. Bu qasidada odamzotning nuqsonlarini ochib ko‘rsatishga shoir ko‘p e’tibor qiladi.

“S.Z.” qasidalari o‘zaro bir-biriga vobasta ham. Ya’ni 1-qasidada ilohiy tavhid – olam yagonaligi, yagona abadiy va azaliy borliq, yagona Parvardigorning qudrat va azamati, zarrada koinotgacha jamiki olam ishlari, o‘zgarishlar, harakatlarni boshqarib, O‘z qudratini namoyon etishi madh etilsa, 2-qasidada olam mehvari Payg‘ambar (s.a.v.)ning muborak me’roji, uning diydoriga sobit-u sayyora, Arsh-u Kursi, Oy, Quyosh mushtoq-muntazirligi, malaklarning Rasuli akram (s.a.v.)ni shod kutib olishi, Parvardigor b-n bo‘lgan muloqot tasvirlanadi; 3-qasidada faqr va saltanat o‘zaro qiyoslanib, faqrning ulug‘ligi, ustuvorligi isbotlanadi, 4-qasidada dunyoning bebaqo va bevafoligi, falak zulmi tilga olinib, odamlarning ana shu o‘tkinchi, foniy dunyoga mehr qo‘ymay, oxirat sari o‘zlarini chog‘lab borishi, ruhiy-ma’naviy yuksalishga e’tibor qilishi ko‘rsatiladi; 5-qasidada jannatdan badarg‘a bo‘lgan Odam Ato farzandlari bani basharning chin insoniylik – Komil insonga xos bo‘lmagan noxush va nomunosib axloqiy belgilari, nafs yo‘lida qilgan nojoiz ishlari tanqid qilinadi va 6-qasidada ana shu nuqsonlardan qutulishning yo‘li tariqat ekani, tasavvuf va tariqat – komillikning bosh yo‘li ekani batafsil tushuntiriladi.

Xullas, 6 qasidaning hammasi o‘zaro vobasta mavzularda yaratilgan bo‘lib, bunda bog‘lovchi bosh mavzu – ilohiyot va ilohiyotga yaqinlashtiruvchi komillik (tariqat) haqidagi g‘oyalardir. Shu asosda “S.Z.” yaxlit bir turkum asarlar qiyofasini olgan. N.ning o‘zi ham buni “M.L.” asa-

rida qayd etadi: “Bu olti qasida hamd-u na’t va sano-yu ma’vizatdur (nasihatdir) va ahli tasavvuf va tariqat tili bila ma’rifat” bayon etilibdir.

Bunday tafakkuriy qasidalar, albatta, keng omma u-n emas, balki so‘z san’atini yuksak anglagan, so‘fiyona – orifona istilohlar ma’nosini yaxshi tushunadigan, keng ma’lumotli odamlarga mo‘ljallab yozilardi. Daqiq ma’noni anglash u-n diqqat qiladigan nigoh, chuqur g‘oyalardan zavqlanadigan qalb kerak bo‘ladi. N. qasidalari ham ancha diqqattalabdir. Ular avvalo fikrga, keyin qalbga ta’sir etadi – shoir istilohlari ma’nosi, g‘oyalari yo‘nalishini anglamagan odam undan zavqlana olmaydi.

O‘rta asrlar musulmon sharqi erishgan falsafiy, irfoniy, ilohiy tushunchalar, Qur’on hikmati va hadislar mazmuni “S.Z.”da chuqur aks etgan. N. buning ustiga fors tilidagi juda qadimiy nodir so‘zlar, turli ilmlarga oid istilohlarni qo‘llaydi. O‘quvchi bu istilohlarning o‘zinigina emas, shu istilohlar b-n tuzilgan so‘z o‘yinlari, badiiy san’atlarni ham bemalol ilg‘ab olsa, shoir mahoratining naqadar baland ekaniga guvoh bo‘ladi.

Shoirning keng qamrovli nigohi, olam va odamning bir butunlikda olib qarashi uning qasidalarida ham yaqqol izini qoldirgan. Ulug‘ san’atkorlarning hammasida bo‘lganiday, N. ham yaxlitlik va butunlik qoidasiga, izchil fikriy-shuuriy tizimga amal qilib, so‘z qasrini bunyod etgan. 6 qasidani, bemalol mustahkam poydevorli, naqsh-u koshinlari har xil, ammo bir uslubda yaratilgan 6 oshyonli ulkan binoga qiyos qilish mumkin. Har bir oshyon – bir hayrat xonasi, tavajjuh va tafakkur, taxayyul va tasvir hayrati.

N. bu forsiygo‘y san’atkor shoirlarning qasidalariga ehtirom b-n qaragani va ijodiy yondoshgani u-n ham ularga tatabbu’ tarzida yaratgan. “S.Z.” qasidalari “D.F.” tarkibiga kiradi. H.Sulaymon devonning Parij va Istanbul nusxalari asosida ushbu qasidalarni 1968-y.da “Adabiy meros” majmuasining 1-sonida arabiy va kirill yozuvida nashr ettirdi.

“S.Z.” tarkibidagi qasidalarni S.Erkinov, S.Rafiddinov, H.Muxtorova va boshqalar nasriy tarjima qilishgan. Bu qasidalar O‘zbekiston xalq shoiri J.Kamol tomonidan to‘liq she’riy tarjima qilindi.

N. forsiy tildagi qasidalari b-n bu tilni haddi a’losida bilishini-yu, unda ham buyuk salaflari muqobiliga qo‘yadigan asarlar yarata olish mahoratini amalda namoyon etdi. Ular nafaqat N. ijodidagi, balki forsiy adabiyotdagi badiiy yuksak asarlardan hisoblanadi.

Mazkur qasidalar N.ning 20 jildlik mukammal va 10 jildlik to‘la asarlari tarkibida, shuningdek, nasriy tarjimasi b-n alohida nashrlar tarzida bir necha marta nashr etildi.

“S.Z.” qasidalari H.Sulaymon, N.Mallayev, Sh.Shomuhamedov, E.Shodiyev, Y.Is’hoqov, B.Valixo‘jayev, Sh.Shukurov, A.Muhammadiy, S.Erkinov, A.Abdullayev, N.Komilov, R.Vohidov, S.Rafiddinov va E.Ochilovlar tomonidan u yoki bu darajada o‘rganilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик, 3-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Девони Фоний. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Ўзбек адабиёти тарихи. 5 жилдлик, 2-жилд. – Т., 1977; Абдураҳмон Жомий. Баҳористон. 1979*; *Фоний гулшани. – Т., 2011; Комилов Н. Хизр чашмаси. – Т., 2005; Валихўжаев Б. Муттоз сиймолар. – Т., 2002; Эркинов С. Алишер Навоийнинг форс тилидаги қасидалари поэтикаси // “Адабиёт кўзгуси”, № 7. – Т., 2002; № 8. – Т., 2004.*

N.K., S.R., E.O.

SIFOT – sifatlar. Ilohiy zotning ayonlashuvchi, uning qudrat va xususiyatlari. Barcha ruhiy va moddiy olamlar, jumladan, inson ham shu sifatlardan iborat. M-n, N. “N.M.” tazkirasi muqaddimasida bu haqda shunday yozadi:

“Chun bu maxluqot alarning asmo’ va sifotining mazohiri erdilar va har sifatg‘a muttasif erdilar. Har qaysi o‘z qobiliyatig‘a ko‘ra ul sifatg‘a munosibki, anga mazhar erdi, taraqqiy

va tafovut zohir qildilar va zotlarida bashariyat g‘olib erkan jihatidin muxtalif adyon va milal arog‘a tushti”.

Shayx Ruknuddin Alouddavla as’ hobi Taqiyuddin Ali Do‘stiy haqida shunday deydi:

“Haq taolo bu yil anga bir qatla kulliy mavjudot suratida tajalliy qildi. Va ul Haq taolo tasbeh-u tanzihin suvar lafzi bila andoqki Haq taolo aning tiliga joriy qilur erdi, aytur erdi. Haq sifot o‘zluki bila andin so‘rdikim, meni ko‘rdung? Ul dediki, Bor Xudoyo, ko‘rmadim! Haq taolo buyurdikim, bularki ko‘rdung, ne edi? Javob berdiki, osor-u af’ol-u sifoting suvari erdi va sen barcha suratdin munazzahsen. Haq sifot bu so‘zda anga sano aytti va bu ma’noni andin pisandida tutti”.

S. shoir g‘azallarida ham ko‘p tilga olinadi. M-n, quyidagi baytida zohidga murojaat qilib aytadiki, biror narsaga haqorat ko‘zi b-n qaramaki, dunyoda Haq S.larining mazhari bo‘lmagan biror-bir ashyo yo‘q:

Boqma ey zohid, haqorat birla ashyo sarikim,
Bo‘lmag‘an aning sifoti mazhari yo‘q hech zot.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

E.O.

SKANJABIN – N. asarlari matnida juda kam qo‘llangan forsiy jumla. Lug‘atlarda yozilishicha, sirka va murabbo kabi ma’nolarni bildiradi. Asosan, S.ni tabiblar tabobatda ishlatgan. “Farhangi zaboni tojik” izohli lug‘atida undan faqat tabiblargina emas, balki qandolatchilikda holvapazlar holva tayyolashda S.dan foydalanishi aytilgan. N. S.ni “L.M.”ning XXXIII bobida Majnunning ota-onasi uning firog‘ida kuyib vafot etishi haqida kuyinib yozar ekan, Majnun Navfalning uyidan ota-onasi qabriga ziyoratga borishi xususidagi lavhada mahorat b-n qofiya o‘rnida ishlatgan. U shu bobda Majnunning juda mungli qiyofasini tasvirlagan va uning pajmurda jismi hamda sog‘lig‘i yomonlashganini, shifo topishini go‘yo tabiblar tilida bayon qilgan, “Safro ortar sikanjanbindin” deb tashxis yozgan:

Sharbat kibi ichsa erdi kofur,
Tab’i o‘ti aylar erdi mahrur.

Chun naxli hayot bo‘ldi bebarg,
Sharbat bo‘lur elga sharbati marg.

Gar bersa tabib tuxmiyona,
Bil zahrigiyah butarga dona.

Ich qabz topar taranjabindin,
Safro ortar sikanjabindin.

Bo‘lur ta’viz birla afsun,
Bois bori ranj o‘lurg‘a afzun.

Ad.: *Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Шамсиев П., Иброҳимов С. Навоий асарлари луғати. – Т., 1972; Фарҳанги забони тожик. 1-том. – М., 1969.*

B.R.

SOBIR Abdulla (taxallusi; asl ism-sharifi Abdullayev Sobir) (1905, Qo‘qon – 1972, Toshkent) – shoir, yozuvchi va dramaturg. U O‘zbekiston xalq shoiri (1965), O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi (1944) unvonlari sohibi. S.A. H.Olimjon, Uyg‘un, Amin Umariylar kabi N. hayoti va ijodini 1930-1940-yy.da o‘rgana boshlagan. U N. yubileyi qo‘mitasining N.ning 500 yilligiga bag‘ishlangan qarorlari ijrosida faol qatnashgan. S.A. qo‘mitaning topshirig‘i (1938) asosida 1940-y.da N.ning “X.M.” nomi b-n mashhur bo‘lgan “Chor devon”ini nashrga tayyorlab, chop ettirgan. S.A. nashrga tayyorlash jarayoni xususida “Chor devon” haqida” nomli maqola yozgan va uni “Qizil O‘zbekiston” gazetasida 1938-y.da

e’lon qilgan. S.A. zamonaviy o‘zbek adabiyotida o‘z davrining g‘azalnavis shoiri sifatida tanilgan. U yozgan g‘azallarida N. g‘azallarining adabiy ta’sirini sezish mumkin. Shoir “Ustoz Navoiyga” she’rini yozgan va N. g‘azallari uslubida “Husnidin hayratda o‘ldi barcha besomonligim”, “G‘amimnimu deyish yo beg‘am elning mojarosimu” misralari b-n boshlanuvchi g‘azallar bitgan.

Ad.: *Уйғун. Чор девон. – Т., 1940; Собир Абдулла. Улуғ устозга: А.Навоийга // Мушгум. 1968, 16-сон.*

B.R.

SOVA – bo‘laklangan oltin parchalari, Iroqdagi shahar, Kayxusrav zamonida qurilgan, hozirgi vaqtda qaytadan bunyod etilgan, 924/1518-y. S.da shoh Ismoil Bahodirxon tomonidan qurdirilgan Jome’ masjid hozirgacha qad ko‘tarib turibdi. S. havosi mo‘tadil, kamsuv joy, bu shaharcha yonidan bir daryo oqib o‘tib, aholini suv b-n ta’minlaydi. Tarixiy manbalarda yozilishicha, shahar aholisi har yili bir kishini qurbonlik u-n daryoda cho‘ktirar ekan, Muhammad (s.a.v.) tug‘ilgan kechasi daryo jippa quriydi. Islom dini S.ga kelgandan so‘ng, bu odat bekor bo‘ladi.

Isfahon va Hamadonda ham S. degan mavze bor.

N. Sovani bir-ikki o‘rinda zikr etgan:

“Qozi Iso-sovaliqdur.”

Mavlono Ahli haqida,”...Xoja Salmon Sovajiy “Masno‘ qasidasig‘a javob aytub...”

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алиакбар Деҳхудо. Луғатнома. 9-жилд. – Теҳрон, 1998.*

Muh.A.

SODIQ – rost, to‘g‘ri ma’nosidagi arabiy so‘z bo‘lib, sadoqatli, vafodor shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi. Bu kalima, asosan, Xoja Ahmad Yassaviy, *“Qul Xoja Ahmad, qil tasdiq, yori g‘ordin qil tahqiq, Oriflikda bil sodiq, Abu Bakr Siddiqdur”,* – deya ta’kidlaganidek, Amiri ul-mo‘minin Abu Bakr Siddiq (r.a.)qa berilgan yuksak maqom. Chunki u kishining nomi tilga olinganda Abu Bakr Siddiq deb zikr qilinadi. Mumtoz adabiyotda ham yori g‘orning fazilati o‘laroq kelgan bu istiloh obraz darajasiga ko‘tarilgan. Ma’lumki, “L.T.” dostonida chahoryorlarning vasfi Abu Bakr Siddiq (r.a.)qa ta’rif-tavsif b-n boshlanadi:

Ulki sultoni rasulning yoridur,
Soniy isnayn azhuma filg‘oridur.

Sodiq-u siddiq *hamrozi oning,*
Har yomon-yaxshida damsozi oning.

Ul edi olam eliga rahnamun,
Keldi chun vassobiqun assobiqun.

Muqtadoyi zumrayi tahqiq ul,
Sobiq islom ahlig‘a ***siddiq*** *ul.*

Demak, siddiqlik ishqda sodiqlik b-n belgilanadi. Ishq da’vosi S.lik imtihonida sinaladi. Mashoyixlar: “G‘ofillar Xudoyi taoloning hilmi panohida kun kechiradi, zokirlar – zikr qiluvchilar uning rahmati va oriflar Xudoning lutfi, sodiqlar – Xudoning qurbi, muhiblar Xudoning do‘stligi soyasida umrguzaronlik qilishadi”, – deyishgan. Qurbat – Alloh va bandasi o‘rtasidagi shunday bir unsiyatki, qurb ahli o‘laroq S. oshiqning iltijosi va duolari ham ijobat bo‘lishi Shayx San’onning S. muridi obrazida ko‘rinadi:

Ish anga – qilmoq munojot-u duo,
Aylabon – shayxig‘a maxlas muddao.

Chun bu maqsadig‘a ***sodiq*** *erdi ul,*
Sidq *– ahlig‘a muvofiq erdi ul.*

Ko‘b duo qildi, chu aylab iztirob,
Tengri ham qildi duosin mustajab.

Abulqosim Muqriy (q.s.)ning “sodiq kishilar o‘zlari va pirlari haqidagi so‘zlarini tasdiqlash

bilan tasavvufga baraka kira boshlaydi”, – hikmatini N. “N.M.”da keltiradi. Tasavvufda solik S.lik b-n talab, ishq, ma’rifat, haqiqat vodiylarini bosib o‘tadi va siddiq rutbasiga ko‘tariladi. Shu bois N. asarlarida ham *guvohi sodiq, tolibi sodiq, mujrimi sodiq, oshiqi sodiq, sidq-u sodiq* birikmalari solikning hollarini yorqin ko‘rsatishga xizmat qiladi:

Oshiqi sodiq vafo birla jafoni tolg‘amas,
Xush kelur ko‘ngliga har nekim kelur dildordin.

N. har ishda sidq-u sadoqatni istab, ba’zan shunday yozg‘iradi:

Tolibi sodiq topilmas, yo‘qsa kim qo‘ydi qadam
Yo‘lg‘akim, avval qadam ma’shuqi o‘tru kelmadi.

N.ning S.lik borasida o‘ziga nisbatan ham aytgan baytlari bor:

Kam emas oshiq sanga, solsang meni ko‘zdin, vale
Oshiqekim, sodiq o‘lg‘ay men kibi kam topqasen.

“Guvohi sodiq”, “sofu sodiq”, “subhi sodiq” kabi birikmalar ham sodiq so‘zining turli ma’no qirralarini ko‘rsatishga xizmat qilgan. Ammo N. asarlarida ko‘p bora tilga olingan, Rasulullоh (s.a.v.)ga ishorat etgan *“Muxbiri sodiq”, “sodiqi rasul*”, ya’ni ishonchli, sadoqatli xabarchi, elchi birikmalarining alohida o‘rni bor. Nasriy va lirik ijodida bu birikmadan birday istifoda etilgan. “H.A.” dostonidagi “Beshinchi na’t”da Me’roj kechasi shunday tasvirlanadi: “Subhonallazi asro” anga musaddaqi durur va “bi-abdihi laylan minal-masjidil haromi ilal-masjidil-aqso” aning subutig‘a ikki guvohi sodiq”.

Bir kecha zulmatqa qolib koinot,
Mehr nihon o‘ylaki aynul-hayot...

Oshiq o‘zin kim desa, oshiq emas,
Borcha kishi ishqda ***sodiq*** *emas...*

Ulki habibim dedi Xoliq ani,
Derlar ulus ***muxbiri sodiq*** *ani.*

Chunki aning borcha so‘zi haq durur,
O‘trusida el so‘zi ***“saddaq”*** *durur.*

Mazkur matnda “bi-abdihi laylan minal-masjidil haromi ilal-masjidil-aqso” S. guvohlar sifatida e’tirof etiladi. Me’roj kechasining haqligi hamda Rasullulloh (s.a.v.)ning S.ligini urg‘ulash maqsadida qo‘llangan *“saddaq”, “musaddaq”* so‘zlari ham S. so‘zi b-n bir asosdan bo‘lib, N. ning badiiy mahoratini ko‘rsatgan. N. u-n insonning sharafi S.ligi b-n o‘lchanishi bois S. kishilarning sifatlari “N.M.”da shunday keladi: “Murta’-ish debdurki, Abu Abdulloh Hazramiydin tasavvufni savol qildim va yigirma yil erdikim, so‘z demaydur erdi. Manga Qur’on bila javob berdi va bu oyatni o‘qudiki, “mo‘minlar orasida Allohga bergan va’dalariga sodiq kishilar bordir (Ahzob: 23)”. Dedim: alarning sifati nechukdur? Dedi: “ko‘zlari o‘zlariga qaytmaydi, dillari bo‘m-bo‘sh bo‘lib qoladi (Ibrohim: 43)”. Dedim: alarning mahali qaysi ahvoldindur? Dedi: “albatta, taqvodorlar jannatlarda, Qodir podshoh huzuridagi rozi bo‘lingan o‘rinda bo‘lurlar (Qamar: 55)”. Dedim: orttur. Dedi: “o‘zing aniq bilmagan narsaga ergashma. Chunki quloq, ko‘z, dil – bularning barchasiga inson mas’uldir (Isro: 36)”. Albatta, bani basharning “Miysoq”da “Sen bizning Robbimizsan” deya bergan va’dasiga sodiqligi eng muhimdir. Adabiyotning vazifasi ham mana shu iqrorni unutmaslik, unga xiyonat etmaslikni o‘z maqsadiga aylantirgani bois S. – “rozi bo‘lingan nafs” sohiblari sifatida tariqatda yuksak maqom, irfoniy adabiyotda esa obrazga aylangan.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

Z.R.

SODIQBEK SODIQ KITOBDOR (to‘liq ismi: Sodiqbek Afshor Kitobdor) (1533/34-1611/12, Tabriz) – “T.A.H.”dagi hakim. Shoir, olim, naqqosh, tarroh. O‘z kulliyotiga yozgan debochasiga ko‘ra, Xudobandali nomi b-n mashhur bo‘lgan turkiy qavmga mansub. Tabriz shahridagi Varju mahallasiga yaqin bir joyda sardor oilasida dunyoga kelgan. Yoshligidan adabiyotga qiziqishi, she’r yozishga havasi namoyon bo‘lgan. Mir Sun’iy, Sodiqiy Fazoiy, Hofiz Sabu kabi olim-u shoirlar tarbiyasini olgan. Ilmi bade’ b-n jiddiy shug‘ullangan. Hamadon hokimi Amirxon uni o‘z tarbiyasiga olib, ilm, adabiyot va san’at b-n shug‘ullanish u-n barcha sharoitni yaratib beradi. Natijada, u musiqa, xattotlik, naqqoshlik, musavvirlik boblarida katta salohiyat sohibi ekanligini ko‘rsatgan. U Iskandarxon va Badrxon afshorlar xizmatida ham bo‘ladi. Naqqosh va tarroh sifatida shuhrat qozonadi. U sipohiy sifatida ham mard va mohir bo‘lgan. Jumladan, Astrobod safarida turkman isyonchilari b-n janglarda jasorat ko‘rsatgan. S.ning ilm-u fazilatlari dovrug‘i saroygacha yetib kelib, u Shoh Ismoil II davrida saroy kutubxonasiga ishga olinadi. Shoh Abbos esa uni “Jalili kitobdoriy” (“Ulkan kitob saqlovchi”) mansabiga ko‘taradi. Safaviylar davrida kitobdorlik mansabi katta ilmiy-madaniy ahamiyatga ega vazifa hisoblangan. S. ham turkiy, ham forsiyda ijod qilgan bo‘lib, umri oxirida o‘zi yozgan asarlar ro‘yxatini tuzib qoldirgan. Ular: “Zubdat ul-kalom” (“So‘zlar sarasi”) – qasidalar to‘plami. 2. “Fathnomayi Abbosi nomdor” (“Mashhur Abbosning zafarnomasi”) – Firdavsiyning “Shohnoma” asari vaznida yozilgan doston. 3. “Sharhi hol” – Nizomiyning “Maxzan ul-asror” va Sa’diyning “Bo‘ston” asarlari ta’sirida yozilgan maqolalar va hikoyatlar to‘plami. 4. “Devon” – forsiy va turkiyda turli yillarda yozgan har xil janrdagi she’rlari. 5. “Sa’d va Said” – Nizomiyning “Xusrav va Shirin” masnaviysi vaznida yozilgan doston. 6. “Majma’ ul-xavos” (“Xoslar majmuyi”) tazkirasi. 7. “Qonun us-suvar” (“Musavvirlik qonunlari”) – musavvirlik qoida-usullari haqida she’riy manzuma. 8. “Maktublar” – forsiy va turkiy maktublar majmuasi. 9. “Tazkirat ush-shuaro” (“Shoirlar tazkirasi”) – muallifga zamondosh shoirlarning ruboiy va muammolaridan tuzilgan to‘plam. 10. “Hazziyot” (“Lazzatlar kitobi”) – Muin Astrobodiyning “Risolayi lazzat” asariga o‘xshatib yozilgan bo‘lib, har qanday hissiy huzur-halovat haqida.

S.ning asarlari ichida aynan “Majma’ ul-xavos” (“Xoslar majmuyi”) tazkirasi – N.ning “M.N.” tazkirasiga ergashib turkiy chig‘atoy tilida 1597/98-yy.da yozilganligi bilan e’tiborga molik. Bu tazkirada muallif Shoh Ismoil davrining avvallaridan to shoh Abbos zamonigacha o‘tgan 480 nafar shoir haqida ma’lumot berganini ta’kidlaydi, lekin asarning mavjud qo‘lyozmalarida ularning adadi 333 ta. U Eron olimi A.Xayyompur tomonidan topilib, 1948-y.da Tabrizda nashr etilgan. “Majma’ ul-xavos” muqaddimasida u Jomiyning “Bahoriston”, N.ning “M.N.”, Davlatshohning “Tazkirat ush-shuaro”, Som Mirzoning “Tuhfayi Somiy” tazkiralarini zikr etadi va N. tazkirasiga o‘xshatib, o‘z tazkirasini ham 8 majma’ – bobdan iborat qilib tuzganini ta’kidlaydi: 1) zamon podshohlari; 2) shahzodalar; 3) turkiy hukmdorlar; 3) eroniy shohlar; 5) turkiy va eroniy hukmdorlarning farzandlari; 6) sayyidlar: 7) turkiy xushta’blar; 8) eroniylardan chiqqan zamon shoirlari. N.ga yuksak baho berib, uni quyosh, o‘zini zarra, uni ummon, o‘zini qatra deb ataydi. Adabiy xizmatlari, turkiy til rivojiga qo‘shgan hissasini ulug‘laydi:

Ulkim, mo‘g‘ul istilohin aylab mashhur,
Oldi Arab-u Ajam elidin manshur.
Bo‘lsa ne ajab jahon eliga mazkur –
Kim, hech kishig‘a bu yanglig‘ ermas maqdur.

N. kabi S. ham o‘z tazkirasida har bir shoir haqida ma’lumot berganda uning qayerdan ekani, taxallusi, nasabi, qaysi tillarda ijod qilishi haqida yozadi va u yaratgan asarlarni sanab ko‘rsatadi, ijodidan xarakterli namunalar beradi (N.dan farqli, u bir-ikki emas, bir necha misollar keltiradi), shoir xarakterini ochishga xizmat

qiladigan ibratli hikoyat va qiziqarli latifalarni keltirib o‘tadi. U yoki bu shoir haqida so‘z yuritar ekan, uning o‘zi b-n muloqotlari, shuningdek, o‘z ahvoli, safarlari to‘g‘risida to‘xtaladi. Bundan uning ko‘p sayohat qilgani, ko‘plab ijodkorlar b-n uchrashgani, uzoq yillar mobaynida o‘z tazkirasi u-n ma’lumotlar yig‘ib yurgani ma’lum bo‘ladi, asosan, hukmdorlarga bag‘ishlangani u-n unda madhiya ruhida yozilgan ta’riflar ko‘p uchraydi.

S.K.ning ushbu tazkirasini Maqsud Shayxzoda, R.Nurmatova, B.Ahmedov va B.Rajabovalar ma’lum ma’noda tadqiq etishgan. M.Shayxzoda o‘rganib 1939-y.da alohida jajji tadqiqot yaratgan va u maqolasida N.ning ozarbayjonlik shogirdi degan mavzuni ochib bergan. B.Rajabova S.K. va uning asari haqida maqola yozgan. Maqolada tazkira xususida batafsil to‘xtalgan. S.K.ning bu asari tez shuhrat qozondi va undan turli davrlarda ko‘plab qo‘lyozma nusxalar ko‘chirildi. Hozirda ular Turkiya va Eron kitob fondlarida, Parij Milliy kutubxonasida, Bokuda Ozarbayjon FA kutubxonasining qo‘lyozmalar fondi va Sankt-Peterburg Sharqshunoslik instituti Sankt-Peterburg bo‘limining qo‘lyozmalar fondida saqlanmoqda. 1948-y.da esa Tabriz universitetining prof. Abdurrasul Xayyompur tazkiraning Istanbul va Tabriz nusxalari asosida matnini tayyorlab, fors tiliga tarjimasi b-n nashr qildirdi. Bu nashr ilmiy jamoatchilik e’tiborini o‘ziga jalb etdi.

Ad.: *Навоий замондошлари хотирасида (Тузувчи акад. Б.Аҳмедов). – Т., 1986; Шайхзода М. Озарбайжонлик Навоийнинг тазкиранавис шогирди. 5 томлик, 5-том. – Т., 1945; Ражабова Б. Вафо сарриштасининг пойдор // Янги Ўзбекистон. 2022, 29-июль; Шайхзода М. Тазкирачилик тарихидан // Асарлар. 4-жилд. – Т., 1972; Ганиева С. Навоий насри нафосати. – Т., 2000.*

B.R., E.O.

SOYILIY I – xurosonlik shoir. N. uni “M.N.”ning uchinchi majlisiga kiritgan. Xurosonning Jo‘yan viloyatidan bo‘lgan. N. mazkur shoirni “darveshvash va kamsuxan” kishi deb ta’riflagan va she’rlarining yomon emasligini qayd qilib, bir forsiy baytini keltirgan. Bayt S.ning she’r yozish texnikasini yaxshi egallagan yetuk shoir ekanligini ko‘rsatib turadi. She’r mumtoz she’riyat u-n an’anaviy bo‘lgan mazmunda bitilgan va unda ishq g‘ami va balosi motivi o‘z badiiy ifodasini topgan:

Maro dar dida tang omad fazoyi ko‘h-u
homun ham,
G‘ami Farhod man doram, baloyi ishqi
Majnun ham.

Tarj.: Mening ko‘zimga tog‘ bilan dasht fazosi tor bo‘lib qoldi. Chunki menda Farhod g‘ami va Majnun ishqining balosi bor.

Birinchi misradagi “ko‘h” (tog‘) ikkinchi misradagi Farhod b-n, birinchi misradagi “homun” (dasht) ikkinchi misradagi Majnun b-n tanosub hosil etadi va muallifning badiiy niyatini ifodalashga xizmat qiladi. Baytning ravonligi ham shoirning mahoratidan darak beradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

Q.E.

SOYILIY II – “M.N.”ning oltinchi majlisida zikr etilgan Movarounnahr shoirlaridan. Qarshi shahridan bo‘lgan. Forsiy tilda ijod qilgan. S. kotiblikda ham nom qozongan. N. uning bu sohadagi mahoratiga katta baho berib, “sari’ ul-qalam kotib” deb yozgan va S.ning har kuni besh yuz bayt she’rni osonlik b-n ko‘chira olganini aytib o‘tgan. S. sohib devon shoir bo‘lgan. N. tazkirasida uning quyidagi bayti berilgan:

Na bar zaxmash dilam paykoni on abro‘ kamon dorad
Ki, bahri zaxmi digar obi hasrat dar dahon dorad.

Tarj.: U qosh kamonining ko‘ngilga zaxm yetkazishi turgan gap, ko‘ngil yana bir zahm ishtiyoqida og‘zida hasrat suvini saqlaydi.

Mumtoz adabiyot an’anasida chin oshiq yorning har qancha jabr-jafosini tortishga tayyor turadi, ularni jafo deb emas, yorning lutf-u karami deb qabul qiladi. Yuqoridagi baytda ham oshiq ko‘ngli yor abro‘ kamonining unga zaxm yetkazishini biladi va ana shunga yetish ishtiyoqida hasrat chekadi. Ko‘rinadiki, bayt asosida an’anaviy mazmun yotadi. Lekin shoir uni bir muncha ta’sirli tarzda ifodalashga muvaffaq bo‘lgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

Q.E.

“SOYIR HUNARVAR VA SAN’ATPARDOZ ZIKRIDA” – “M.Q.” asarining yigirma to‘qqizinchi bobi. Bob juda qisqa yozilgan, xulosasi masnaviy b-n yakunlangan. Lekin unda N. hunar va san’at ahliga ma’lum ma’noda baho bergani seziladi: “Hunarvar va san’atpardoz yolg‘onlari ko‘pdin-ko‘p-u chinlari ozdin-oz. Ishlarida dag‘allik maqdur va haddidin nari, va’dalarida xilof xayol va gumondin tashqari. Chin so‘zkim, erga ulug‘ hunardur, alar qoshida aybi tamom, yalg‘onkim, xaloyiqqa ulug‘ aybdur, alar olida hunari molokalom”.

Masnaviy:

Tongdin oqshomg‘a ishda san’atsoz,
Hunar atvorida fusunpardoz,

Aylabon bu tariyqni varzish
Ki, birovga yugurtgaylar ish,

Gar muaddiy g‘aniy, yo‘q ersa faqir,
Anga bozi berurda yo‘q taqsir.

Mazkur bob matnida N. ushbu ahlning ijobiy va salbiy jihatlarini haqqoniy ochib bergan. Ammo N. ularning ko‘proq salbiy xususiyatlari va ma’lum ma’noda faoliyatlariga e’tibor qaratgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

B.R.

SOLIK (ar.) – yo‘lchi, musofir, g‘arib, sayri suluk yo‘liga kirgan kishi, tariqatga mansub odam. S. pirga qo‘l berib, uning ko‘rsatmalari asosida nafsini tarbiyalaydi. Darajama-daraja usul-u arkon asosida ma’naviy hollarni yashab, maqomlarga erishadi. Bunda “siyosatlig‘ murshidning irshodi”, albatta, muhim. S. ma’naviy yo‘lovchi ekan, bu og‘ir va mashaqqatli yo‘l rahnamo boshchiligida bosib o‘tiladi. *“Dayr pir dedi: maydin bosh ko‘tarma, ey rafiq, Solik uldur, chekmagay boshini pir irshodidin”* kabi satrlarda S. pirning amriga bo‘ysunishi shartligidan bahs etiladi. N. bu hollarni yashagan bir murid o‘laroq asarlarida S.ning holidan xabar beradi:

Navoiy davlati boqiy tilar bo‘lsang yaqin bilkim,
Erur solikka mushkil topmoq oni bo‘lmayin foniy.

S.ning riyozat, ibodat va ma’naviy intilishlaridan ko‘zlangan asosiy maqsad insonlik martabalarini o‘zida zohir etib, komillik maqomiga erishish. Bungacha esa u sulukning bir necha shartlarini bajarishi shart. Bularning birinchisi, tark – mol-dunyo sevgisi, gunoh va chirkin xulqlardan qutulish. Ammo fano holiga sohib solikka mol-mulk, mansab, martaba hech ziyon yetkazmaydi:

Soliki ozodani ko‘rsang g‘aniy, qilg‘ay debon,
Mol aning man’i suluki qilmag‘il inkor anga.

Kema tiyri mol aro bo‘lmish muqayyad demagil,
Ko‘rki, oncha mol o‘lurmu moni’i raftor anga.

N. ustozi “soliki foniy” , “orifi maoniy” Sayyid Hasan Ardasherni to‘la ma’nodagi ozod shaxs, deb ta’riflaydi. S. sulh, uzlat, sukut kabi shartlarni ham ado etgach, maqsad gavharini qo‘lga kiritadi.

Yerga sochqan ter fano dashtida solik jabhasi,
Gavhari maqsudidin har dam nisoredur yana.

S. Rasulullloh (s.a.v.) shariatida istiqomat qiluvchi shaxs. U amaliyotchidir. Ya’ni murshidi

tomonidan berilgan barcha vazifalarni bekam-u ko‘st bajaradi. N. “B.B.” devonidagi fardlarining birida shunday deydi:

Nabi shar’ig‘a topmoq istiqomat
Erur solikka mushkilrak karomat.

Bu kabi qarashlar nasriy asarlarida nazariy xulosalar tarzida ifodalangan. “N.” tazkirasida keladi: “Xoja Abduxoliq G‘ijduvoniy buyurdilarki, har solikki, nafs fanosi sarhadig‘a yetmagan bo‘lsa! Chunki anga g‘azab dast bergay, shayton andin dast topqay. Chun nafs fanosi hosil qilmish bo‘lsa, anga g‘azab bo‘lmas, g‘ayrat bo‘lur va shayton g‘ayratdin qochar. Bu sifat birovga musallamdurki, yuzi Haq yo‘lig‘a bo‘lg‘ay va “Kitobulloh”ni o‘ng ilkiga tutqoy va Rasulullo (s.a.v.) sunnatin so‘l ilkiga va bu ikki yorug‘luq orosida yo‘l suluki qilg‘ay”. Aslida N.ning har bir asarida inson, badiiy obraz s. qiyofasida namoyon bo‘ladi. N. esa o‘z asarlari b-n tarbiyalovchi komil murshiddir.

Ad.: *Нажмиддин Кубро. Тасаввуфий ҳаёт. – Т., 2009.; Азизиддин Насафий. Тасаввуфда инсон масаласи: инсони комил. – Истанбул, 1990.*

I.H., Z.R.

SOLIM (ar. – sog‘lom, o‘zgarmagan) – aruz tizimida ruknlari o‘zgarishga uchramagan asllardan tashkil topgan vaznlar. N. “M.A.”da “har baytni, taqte’sida zihof voqe’ bo‘lmaydur, ani solim derlar”, – deb yozadi. M-n:

Mening majnun- / lug‘umg‘a ish- /
qu savdo gar / erur bois,
Va lekin bu / ikiga bir / paripaykar /
erur bois.

V – – – / V – – – / V – – – / V – – –
mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun

Bu bayt hazaji musammani solim vaznida yozilgan. Chunki baytdagi barcha ruknlar mafoiylunning solim ko‘rinishiga teng.

Ad.: *Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. ТАТ. 10 жилдлик. 10-жилд. – Т., 2011.*

E.O.

SOLIMIY (XV asr) – shoir. N. “M.N.”da ma’lumot berishicha, S. Iroqdan tahsil u-n Hirotga kelib, ancha bilimlarni egallagan. She’r yozgan, muammo ijod qilgan, xattot bo‘lgan. Sozlardan ud va tanbur chalishni o‘rganib, hatto musiqiy asarlar ham yaratgan. N. S.ni ham nafsida salomat bor va ham tab’ida istiqomat”, – deb ta’riflaydi.

Hirot madaniy muhitida S.dek yaxshi fazilatlarga boy, badiiy ijod va musiqa san’atining turli sohalarida ijod qilgan shaxslar N.da muayyan husni-rahbat uyg‘otgan, albatta.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

S.G‘.

SOLIH (a.s.) – S. payg‘ambarning nomi Qur’oni Karimda to‘rt suraning to‘qqiz oyatida zikr etilgan. S. (a.s.) Samud qavmini hidoyatga chaqirish u-n yuborilgan, millati arab bo‘lgan payg‘ambarlardan. Uning nasabi manbalarda quyidagicha keltiriladi: Solih ibn Ubay ibn Asaf ibn Fosih ibn Hom ibn Samud ibn Od ibn Eram ibn Som ibn Nuh (a.s.)dir. N.ning “T.A.H.” asarida yozilishicha, Haq subhonahu va taolo Hud (a.s.) dan keyin Samud qavmiga S. (a.s.)ni payg‘ambar qilib yuboradi. Bu qavmi Hijoz va Shomning orasida joylashgan Hijr degan joyda yashagan. Od qavmi nobud bo‘lganidan so‘ng Samud qavmi ularning joyiga borib, buzilgan imoratlarini qaytadan qurib yasay boshlagan. Boy-badavlat kun kechirayotganlari u-n manmanlikka berilib, fisq-u fasod, gunoh ishlarga qo‘l urib, butparast bo‘lib ketadilar. S. (a.s.) qavmini har qancha oxirat azobi b-n qo‘rqitsa ham, so‘zini qabul qilishmaydi. Oz kishigina dinini qabul qiladi. Ammo S. (a.s.) Tangrining buyrug‘i b-n ularni da’vat qilishdan chekinmaydi. Qavmi mo‘jiza ko‘rsa-

tishini istaydi. Ya’ni, duo qilib, bir harsangtosh ichidan bo‘talog‘i bor bir tuya chiqarishini talab qiladilar. S. (a.s.) duo qiladi, Haq taoloning xohishi b-n mazkur tosh yorilib, ichidan bo‘talog‘i bor tuya chiqadi. Bunday g‘aroyib holni ko‘rgan qavm baribir S. (a.s.)ning payg‘ambarligini e’tirof etishmaydi. S. (a.s.) tuyasi o‘ttiz yilgacha va’da qilingan quduqdan suv ichib yuradi. Oxiroqibat Samud qavmi bir necha kishi yuborib, tuyani o‘ldirishadi, bo‘talog‘i esa toqqa qochib ketadi. S. (a.s.) qavmining bu qilmishi u-n Haq taolo ulardan intiqom olishidan xabar beradi. Uch kun ichida bir kun yuzlari sarg‘ayib, ikkinchi kun qoralikka moyil bo‘lib, uchinchi kun batamom qorayib ketishidan ogohlantiradi. Ona tuyani o‘ldirgan badbaxtlar S. (a.s.)ni ham o‘ldirish payida bo‘ladilar. Shunda S. (a.s.)ga ergashganlar ularni to‘xtatib, S. (a.s.) xabar bergan uch kun oz muddat ekani, sabr qilib, uning aytganlarini tekshirib ko‘ring, ana undan keyin bilganingizni qilarsiz, deyishadi. Bu so‘z ularga ham ma’qul bo‘lib, izlariga qaytishadi. Ammo S. (a.s.) aytgan yo‘sunda uch kunda uch alomat zohir bo‘ladi. So‘ngra u qavmda shunday bir holat paydo bo‘ladiki, o‘zlarini iztirob birla yerga ura boshlaydilar. Nogoh Malakut olamidin bir mahobatli un (ovoz) keladi va barchalari halok bo‘ladi. Abdulloh ibn Abbos (r.a.) aytadi: “Solih qavmi va Shuayb qavmini o‘t bilan halok qilganini hisobga olmaganda Haq taolo ikki qavmni bir xil azob bilan halok qilmadi. Biroq bularning farqi shundaki, Solih qavmiga o‘t oyoqlari ostidan chiqdi, Shuayb qavmiga esa osmondan tushdi”. N. mazkur halokat vaqtida kofir qavmdan faqat ikki kishi: biri – Solih (a.s.)ni doim yomonlab yuradigan oyoq-qo‘li falaj Vazi’a ismli bir za’ifa qishloq chekkasida qolgani u-n, ikkinchisi, Abuzu’ol nomli badavlat kishi Makka haramida yurgani u-n omon qolganini yozadi. Biroq ikkalasi ham ozgina vaqtdan keyin, ilohiy azob tushgan joyga kelishi b-n halok bo‘lishgan. N. Abuzu’olning yonida bir shox oltini bo‘lgani va mazkur oltin b-n dafn qilinganini aytib o‘tadi. Vaqti kelib, Payg‘ambarimiz (s.a.v.) shu yerdan o‘tayotgan vaqtlarida, as’hobga bu yer Abuzu’olning dafn etilgan joyidir, deya Solih nabiy va Samud qavmining qissasini aytib berganlar va mazkur shox oltindin ham xabar berganlar. Shunda ashoblar mazkur joyni qazishgan va oltin olishgan. Manbalardagi ma’lumotlarga ko‘ra, qavmi orasidan chiqib ketgan S. (a.s.) Shom viloyatiga ketgan va u yerda 18, boshqa xabarlarga ko‘ra 40 yil yashagan. Ba’zi manbalarda esa qavmi halokatidan so‘ng S. (a.s.) izdoshlari b-n Falastinning Ar-Ramla nohiyasiga kelib, umrining oxirigacha yashagan. N. yozadi: “Solih (a.s.)ning umri ikki yuz sekson yilga yetti. Nuh (a.s.)ning shariatida yurar edi. Dafn etilgan joyi Haram yaqinida Dor un-Nadvada, ba’zilar esa Rukn bila Maqom orasida ham deydilar”. N. S. (a.s.) haqidagi ma’lumotlarini quyidagi ruboiy b-n yakunlaydi:

Solih keldi Samudning qavmi chog‘i,
Tolih edilar bu qavm boshtin ayog‘i.
Bu turfaki, charx zolining o‘ynamog‘i,
Tolihni dog‘i qo‘ymadi, Solihni dog‘i.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Носируддин Бурҳониддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. 2 жилдлик, 1-жилд. – Т., 1990; Пайғамбарлар тарихи (Исломият тарихи). – Т., 2014; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. – Т., 1983.*

S.R.

SOLIXOVA Hanifaxon Sobitovna (1939, Sharqiy Turkiston, G‘ulja shahri) – adabiyotshunos, shoira. F.f.n. (1977), prof., (1995). “Uyg‘ur dostonchiligi va nasri taraqqiyotida Alisher Navoiy “Xamsa”sining o‘rni” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. S.H.S. bir qancha ilmiy tadqiqot va monografiyalar mualifi: “Uyg‘ur dostonchiligi va nasri taraqqiyotida Alisher Navoiy “Xamsa”sining o‘rni (monografiya, 1995), “Navoiy va Nizoriy” (risola, 1993), “Navoiy va Xirqatiy” (risola, 1993) “Alisher Navoiy va uyg‘ur adabiyoti” (risola, 1993), “Alisher Na-

voiy izdoshlari” (monografiya, 2005) “Turkiston xalqlari adabiyoti ocherklari” (1999), “Istiqlol orzusi va realistik tasvir” (monografiya, 2009).

Olimaning N. ijodi b-n bog‘liq tadqiqotlarida ulug‘ mutafakkirning ijodiy kamolot cho‘qqisi badiiy so‘z sohiblari u-n hamisha orzudagi bir yuksaklik bo‘lib qolgani, shu bois, N. an’analarini o‘rganish, ularni hayot talablari asosida rivojlantirib, ezgu niyatlar timsoli sifatida yangidan qalamga olish so‘z san’atkorlari u-n ma’naviy zaruriyat ekani asoslab berilgan. Shuningdek, N.ning mahorat maktabiga bo‘lgan e’tibor o‘zbek adabiyotidan tashqari turk, uyg‘ur, turkman, tatar, qirg‘iz, qozoq adabiyotlarida ham ortib borgani, o‘z navbatida, uyg‘ur shoirlarining N. an’analariga murojaat etishlari boshqalardan nusxa olish ham, taqlid ham emasligi misollar b-n ko‘rsatilgan. Aslida, N.ga murojaat etish jahon adabiyoti tajribasida bo‘lganidek, daholardan o‘rganish, ularning ijodiy tajribalaridan bahra olib, yangi ijodiy kashfiyotlarga qo‘l urishdir. Qolaversa, N.ga murojaat etish ustoz an’analarini davom ettirish qobiliyatiga ega bo‘lgan ijodkorlarni ham talab qilar edi. Uyg‘ur adabiyotida ana shu shart-sharoitlar mavjud bo‘lib, uning Nizoriy, G‘aribiy, Ziyoyi, Hirqatiy, Mulla Siddiq Yorkandiy kabi namoyandalari Sharq adabiyotining bilimdonlari sifatida tanilgan. Shu bois, ular N.ning lirik merosiga ham ijodiy yondashib, uyg‘ur adabiyotining o‘z Farhodi, Majnuni, Bahromi va Iskandarlarini yaratish niyatida bo‘ldilar va bunga muvaffaqiyat b-n erishdilar. Muallif “Navoiy va uyg‘ur adabiyoti” risolasida quyidagi e’tiborli fikrlarni ham bildirib o‘tgan: *“Navoiy “Xamsa”si yuz yilliklar davomida uyg‘ur madaniy-adabiy hayotiga tobora yaqin bo‘lib bordi. “Xamsa” bir tomondan, uyg‘ur adabiyotida uning mavzulari, syujeti va obrazlari asosidagi yangi-yangi asarlarning yuzaga chiqishiga vosita bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan XVI-XIX asrlarda “Xamsa” dostonining uyg‘ur adiblari tomonidan amalga oshirilgan nasriy bayonlari misolida uyg‘ur nasri benihoya boyidi va adabiyotning muhim darajasida taraqqiy qildi, ya’ni Navoiy “Xamsa”si uyg‘ur dostonchiligining ravnaqiga qancha ta’sir etgan bo‘lsa, nasriy bayonlar yo‘li bilan uyg‘ur nasri taraqqiyotiga ham shuncha ta’sir ko‘rsatdi*”.

Umuman olganda, S.H.S.ning o‘zbek va uyg‘ur adabiy aloqalari, xususan, N. ijodiyotiga oid salmoqli ilmiy izlanishlari ahamiyatlidir.

Ad.: *Солихова Ҳ. Поэзия рожденная революций. – Т., 1987; Солихова Ҳ. Уйғур достончилиги ва насри тараққиётида Алишер Навоий “Хамса”сининг ўрни. – Т., 1995; Солихова Ҳ. Навоий ва Низорий. – Т., 1993; Солихова Ҳ. Навоий ва Хирқатий. – Т., 1993; Солихова Ҳ. Алишер Навоий ва уйғур адабиёти. – Т., 1993; Солихова Ҳ. Алишер Навоий издошлари. – Т., 2005; Солихова Ҳ. Туркистон халқлари адабиёти очерклари. – Т., 1999.*

S.O‘.

SOM (a.s.) – Nuh (a.s)ning katta o‘g‘li. “T.A.H.”da ba’zilar uni mursal payg‘ambar desa, aksar tarixchilar nabiylardan ekanini aytishgan. Eron podshohlari uning naslidan bo‘lgani u-n Abul-furs – forslar otasi deyishgan. Ba’zi manbalarda “ammo arab va ajamning otasi Somdir”, – degan rivoyatlar ham bor.

N.ning yozishicha, S. (a.s.)ning 6 ta o‘g‘li bo‘lgan, ba’zilar to‘qqizta deyishgan: “Kayumars uning avlodidin, Arfaxshad uning naslidandir. To‘rtinchi bo‘g‘ini Qahton bila Qolig‘ga yetishadiki, ibriy (ibroniy, yahudiy)lar Qolig‘ naslidan. Arab (urug‘lari)ning ko‘pi Qahton naslidan. Qahtondan uchunchi pusht Saboga ulashadi, arablar urug‘idan bo‘lgan Hamandiy va Yaxmiy va Omiriy va Qazo’iy va Ash’ariy va Izdiy va Toyilar Sabo naslidandir. Somning ikkinchi o‘g‘li Olimdurki, Xuroson va Misol uning farzandlaridan, Iroq Xuroson o‘g‘lidir. Va Kirmon va Makron Misol farzandlari. Uchinchi o‘g‘li Asvad bo‘lib, Amvoz va Pahlu uning avlodidan. Fors Pahluning o‘g‘lidir. To‘rtinchi o‘g‘li Navdar bo‘lib, Ozarbayjon va Arron va Arman va Farg‘on uning

avlodlaridan. Beshinchi o‘g‘li Iramdurkim, Od va Samud qavmi uning naslidin. Oltinchi o‘g‘li Sag‘rdurkim, Shom va Rum aning avlodlaridan”.

N. “M.L.”da ham S. (a.s.)ni Abul-furs (forslar otasi), Yofasni Abut-turk (turklar otasi) va Homni Abul-hind (hindlar otasi) ekani va biri Xito mulkiga, biri Eron va Turon mulkiga va Homni Hindiston mamlakatiga yuborilgani, arab, fors va hind tillarining Nuh (a.s.)ning uch o‘g‘lidan tarqalganini ta’kidlaydi va Homning otasiga beadablik qilgani va yuzi qoraygani, bu narsa avlodi va tiliga salbiy ta’sir etganini eslatib o‘tadi. N. soqiynomasida dunyoning o‘tkinchiligi haqida so‘zlar ekan, S. (a.s.)ni ham esga oladi:

Qolmadi Rustam ila Som dog‘i,
Yazdijurd o‘tti-yu Bahrom dog‘i.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. ТАТ. 10 жилдлик,10-жилд. – Т., 2011; Носируддин Бурҳониддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. 2 жилдлик. – Т., 1990.*

S.R.

SOMIRIY – Muso (a.s.)ning xolavachchasi va shogirdi. Payg‘ambar uni nihoyatda sevib-ardoqlagan. Alloh taolo Fir’avnni halok qilmoqchi bo‘lganida, Jabroil jannat buroqini minib, Fir’avnning oldiga borar edi. Jabroil mingan otning tuyog‘i tekkan yer jonlanishini ko‘rib qolgan S. undan bir hovuch olib asrab qo‘ygan edi. Alloh taolo Tavrotni nozil qilish u-n Muso (a.s.)ni Tur tog‘iga da’vat etganida uning hayallab qolganidan foydalanib, fitna qo‘zg‘aydi.

Misrdan chiqib kelayotganda Fir’avn qavmining zeb-ziynatlarini ko‘tarib chiqqan bani Isroilga qarata: “Bu boyliklar sizga harom bo‘lib, uning kasofatidan Haq diydoridan mahrum qoldingiz. Undan o‘zingizni xalos qilib, menga bering – men sizga Tangrini ko‘rsatay!” – deb avraydi. Isroil qavmi unga ishonib, bor narsalarini topshiradilar. S. barcha oltin-kumush, gavhar-u marvaridlarni bir yerga to‘plab, ularni eritadi va ichi g‘ovak buzoq yasaydi. Jabroilning oti tuyog‘i tekkan tuproqni unga solganida, ovoz chiqaradi. “Sizning Tangringiz ana shu!” – deydi S. Bunga ishongan qavmi oltin buzoqqa topina boshlaydilar.

Shu tariqa, Muso (a.s.)ga faqat Allohgagina sig‘inishga va’da bergan qavmi S. yasagan buzoqqa sig‘inish b-n bu ontlarini buzadilar. Muso (a.s.)ning: *– Bu nima qilganing, ey Somiriy? – degan savoliga javoban u:*

– Nafsim meni shunga undadi, – deydi.

Shundan keyin Muso (a.s.) S.ga u yasagan ilohni yondirib, kulini dengizga sochib yuborishlari, o‘ziga esa qiyomatda qattiq azob borligini aytadi.

S. sehrgar va hiylagar timsoliga aylanib ketgan bo‘lsa, Iso Masihning mo‘jizasi o‘liklarga jon ato etishida. Sharq mumtoz she’riyatida nafasi oshiqqa jon bag‘ishlaydigan ma’shuq ham Masihdam, Masihnafas deb mubolag‘a qilingan, ba’zida hatto undan ustun ham qo‘yilgan. N.ning quyidagi baytida mahbubning ko‘zi sehrgarlikda S.dan, labi jonbaxshlikda Masihdan ustun qo‘yilmoqda. Qolaversa, ularning biri sehr-u ikkinchisi mo‘jiza ko‘rsatgan bo‘lsa, ma’shuqaning bir o‘zida bu ikki xususiyat mujassam: ko‘zi sehr, labi mo‘jiza ko‘rsatadi:

Ko‘zni afsunsoz etib, jonbaxsh labdin nukta ayt,
Somiriy sehrin, Masiho mo‘jizin izhor qil.

Ko‘zingni sehrgarga aylantirib, jon bag‘ishlovchi labingni so‘zga ochib, purma’no so‘zlar ayt – shu tariqa Somiriy sehri-yu Masih mo‘jizasini namoyon qil.

Bundan tashqari, mumtoz she’riyatda ma’shuqning ko‘zi qotil-u labi jonbaxshligi an’anaviy tashbehlardan hisoblanadi, ya’ni ko‘zi b-n o‘ldirsa, labi b-n tiriltiradi. Bu yerda ham shunga ishora mavjud. Chunki S. bani Isroilni yo‘ldan ozdirib, xarob qilgan edi. Demak, S. sehrida halokat mavjud edi. Masihda esa qayta tiriltirish qudrati bor. Ya’ni, ko‘zing jodusi b-n holimni

xarob qilsang, labing mo‘jizasi b-n ahvolimni o‘ngla. Buning misolini shoirning quyidagi baytida ko‘ramiz – unda mahbuba ko‘zining jodusini S. sehridan ustun qo‘yadi:

Voizo, ko‘p vasf qilding Somiriyning sehrini,
Hozir o‘lg‘ilkim, seni ul ko‘zi sohir ko‘rmasun.

Ey voiz, Somiriy sehrini haddan ziyod ta’rif-tavsif etding, ehtiyot bo‘lki, seni u jodu ko‘zli ko‘rmasin, aks holda holing xarob bo‘ladi.

Albatta, N. fikrini oddiygina bayon qilib qo‘ya qolmagan, bil’aks bir baytning o‘zida bir necha san’at silsilasini ko‘ramiz. Avvalo, S. sehri-yu Masih mo‘jizasiga ishora qilinishida talmeh san’ati mavjud. Ikkinchidan, ko‘z jodusining S. sehriga, lab jonbaxshligining Masih mo‘jizasiga qiyoslanishida tashbeh san’atini ko‘ramiz. Uchinchidan, ko‘z fitnasining lab jonbaxshligiga, S. sehrining Masih mo‘jizasiga qarshi qo‘yilishi tazod san’atini keltirib chiqargan. To‘rtinchidan, ko‘z jodusining S. sehriga, lab jonbaxshligining Masih mo‘jizasiga nisbati borligi laff va nashr san’atini yuzaga keltirgan. Beshinchidan, ma’shuq ko‘zi sehrgarligining S. sehri, labi jonbaxshligining Masih mo‘‘jizasiga tenglashtirilishi va hatto ustun qo‘yilishida mubolag‘a san’ati qo‘llangan. M-n, boshqa bir baytda ham qaysi sehrgarki, S. shogirdiman degan bo‘lsa, g‘amzang unga sening ustoding mening shogirdim hisoblanadi, deb yozadi:

Qaysi sohir kim dedikim, Somiriy shogirdimen,
Dedi g‘amzangkim erur shogirdim ustoding sening!

Ad.: *Қуръони Карим. – Т., 1992. (А.Мансур изоҳи); Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Қисаси Рабғузий. 2-китоб. – Т., 1991; Шамси Қайси Розий. Ал-мўъжам. – Душанбе, 1991. (Изоҳлар қисми); Очилов Э. Сомирий сеҳри // Бир ҳовуч дур. – Т., 2011.*

E.O., M.A.

SOMMIRZO SAFAVIY (1517, Tabriz – 1567, Qahqaha qal’asi) – shoir, tazkiranavis. Shoh Ismoil Safaviyning (hukm. yillari 1502–1524) o‘g‘li. Fozil, ma’rifatli, siyosatchi, adabiyotni sevgan kishi bo‘lib, ijod ahlini qo‘llab-quvvatlagan, so‘z san’ati rivojiga xizmat qilgan. Bir muddat Hirot va Ozarbayjon hokimi bo‘lgan. G‘animlar tomonidan markaziy hukumatga dushmanlikda ayblanib, hibsga olingan va mahbuslikda vafot etgan. Uning ilmiy-adabiy merosini “Tuhfayi Somiy” (“Somiy tuhfasi”) nomli tazkirasi va 6 ming bayt hajmidagi g‘azal, ruboiy, fard janridagi she’rlarni o‘z ichiga olgan devoni tashkil etadi. She’rlari tahlili uning mahoratli qalam sohibi bo‘lganligidan dalolat beradi.

Tazkiraning turkiy shoirlarga bag‘ishlangan 6-sahifasi (bob)ni N. haqidagi maqola b-n boshlab, uning hayoti, faoliyati va ijodi haqida fikr yuritadi. Jumladan, Husayn Boyqaro Hirot taxtiga o‘tirgach, bolalik do‘stini Samarqanddan maxsus farmon b-n chaqirib olgani haqida xabar beradi. Shoirning 22 ta asarini quyidagi tartibda ko‘rsatadi: 1) “Nazm ul-javohir”i forsiy; 2) “Nasr ul-laoliy” (Aslida “Nazm ul-javohir” nasriy “Nasr ul-laoliy”ning nazmiy tarjimasi); 3) “Nasoyim ul-muhabbat”; 4) “Xamsat ul-mutahayyirin”; 5) “Qissayi Shayx San’on” (ya’ni “Lison ut-tayr”); 6) “Munshaot”i turkiy; 7) “Mufradot dar fanni muammo”; 8) “Aro‘zi turkiy” (ya’ni “Mezon ul-avzon”); 9) “Tavorixi daqiqa” (“T.A.H.” hamda “T.M.A.”); 10) “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”; 11) “Holoti Pahlavon Muhammad” 12) “Mahbub ul-qulub”; 13) “Majolis un-nafois”; 14) “Hayrat ul-abror”; 15) “Farhod va Shirin”; 16) “Layli va Majnun”; 17) “Saddi Iskandariy” (“Sab’ai sayyor” tushib qolgan); uning 4 turkiy va 1 forsiy devoni bor deydi: 18) “G‘aroyib us-sig‘ar”; 19) “Navodir ush-shabob”; 20) “Badoye’ ul-vasat”; 21) “Favoyid ul-kibar”; 22) taxm. 3 ming baytdan iborat forsiy devon. Ijodidan namuna sifatida “Devoni Foniy” g‘azallaridan 2 ta matla’, “Tuhfat ul-afkor” qasidasining matla’si, Jomiyga yo‘lla-

gan bir ruboiysi va Sohib Doroning N. vafotiga bag‘ishlangan marsiyasidan 2 bayt keltiradi.

Ad.: *Тазкираи “Тўҳфаи Сомий”. – Теҳрон, 1347 (ҳ.-ш.); Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 3. – Душанбе, 2004.*

E.O.

SONE’IY (XV asr) – shoir. She’riyatning ko‘proq masnaviy shaklida ijod qilgan. N. “M.N.”-da S. masnaviylaridan Abdurahmon Jomiy ta’rifidagi ikki baytini keltiradi. N. yozishicha, S. vazirlik ham qilgan. Lekin zulmkorligi va badnafsligi sababli podshoh qahriga uchraydi va qatl qilinadi. “M.N.” tarjimonlari Faxriy S. she’riyatidan forscha yana ikki bayt keltiradi, Qazviniy esa “Halokati o‘z turmush tarzidan yetishti”, deb qo‘shib qo‘yadi. S. qabri o‘z qishlog‘i Zirihda ekan.

Xondamir “Makorim ul-axloq”da S. boshiga katta salla o‘rashi, bu va boshqa yoqimsiz ishlari Husayn Boyqaroning g‘ashiga tekkani va sallasini olib tashlashni buyurgani, shunda N. o‘sha yerning o‘zida podshohga yuzlanib, quyidagi misrani o‘qiganini hikoya qiladi: “Chu bori sabuk kardi, sabuk kun bori gardani ham”. (Ya’ni, Bosh yukini yengillatding, endi gardan yukini ham yengillat).

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик. 9-жилд. – Т., 2011.*

S.G‘.

SORT – turli davrlarda turli ma’nolarda qo‘llanilgan etnik nom. Aslida savdogarchilik, hunarmandchilik b-n shug‘ullanuvchi o‘troq xalq vakilini anglatgan bu so‘z, keyinchalik bir necha marta o‘z ma’nosini o‘zgartirgan. O‘rta asrlarda, xususan, Temuriylar davrida Movarounnahr va Xurosonda yashovchi forsiyzabon xalqni sort deb ataganlar. So‘nggi davrlarda, ya’ni, chorizm mustamlakachiligi yillarida o‘zbeklarni sart deb atash rasm bo‘lgan edi. Bu so‘z N. asarlarida ham mavjud. N. uni forsiy tilda so‘zlashuvchi aholiga nisbatan qo‘llaydi. Ularning tilini “forsiy til”, ayrim o‘rinlarda “sort tili” deb ataydi. Uning “M.L.” asarida ham “fors” va “sort” so‘zlari sinonimlar sifatida qo‘llangan. Xuddi shunday holni, “forsiy til” va “sort tili” iboralarning qo‘llanishida ham ko‘ramiz;

“Sort tilida choqin va ildirimdek mutaayyin va mo‘tabar ikki nimag‘a ot qo‘ymaydurlar”.

“Chun o‘kurmak muqobalasida
forsiy tilda lafz yo‘qtur”...

Asarda sortlarga xos ayrim xususiyatlar ham qayd etib o‘tilgan. Jumladan, sortlar orasida olimlar, tab’ ahli ko‘pligi ta’kidlangan: “Va sort orasida ahli tab’ va donish, zumrayi ilm-u zehn va biynish ko‘prakdur”.

O‘sha davrga oid boshqa turkiy manbalarda ham “sort” so‘zi N. qo‘llagan ma’noda ishlatiladi va forsiy tilda so‘zlashuvchi aholini anglatadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳолоти Паҳлавон Муҳаммад. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; ЎзМЭ, 6-жилд. – Т., 2001; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. “Бобурнома”. – Т., 2002.*

Q.E.

SOSONIYLAR – Qadimgi Eron shohlari sulolasi. 226-y.dan VII asrning o‘rtalariga qadar hukmronlik qilgan. Sharq tarixnavisligi an’anasida bu Ajamdagi to‘rtinchi sulola hisoblanadi. Sulolaning kelib chiqishi Anaxit ilohasi ibodatxonasining kohini bo‘lgan Soson ismli shaxsga borib taqaladi. Sosonning o‘g‘li Bobak (Yevropa olimlari Papak deb ataydilar) Istaxrda hokimlik qilgan. S. sulolasining birinchi vakili Ardasher (Yevropa tadqiqotchiligida Artoshir) Bobakning o‘g‘li bo‘lib, Dorobjurd qal’asining hokimi edi. Arshakiylarning (Ashkoniylarning) hokimiyati zaiflashgach, Ardasher ularga qarshi isyon ko‘targan. Eramizning 224-y.ida u Ashkoniylar sulolasining so‘nggi vakili Arduvon (Yevropa tarixchilarining tadqiqotlarida Artoban V deb

ataladi) va keyinroq uning o‘g‘li Artovazd ustidan g‘alaba qozonib, hokimiyatni qo‘lga kiritgan hamda 226-y.da shohanshoh deb e’lon qilingan. Ardasherning vorislari davrida Sosoniylar imperiyasi dunyoning eng qudratli davlatlaridan biriga aylangan va g‘arbda Rim (Vizantiya) b-n sharqda Turk hoqonligi b-n raqobat qilgan. Sosoniylarning hukmronligi Ardasher shahanshoh deb e’lon qilingan paytdan boshlab besh asrdan ko‘proq davom etgan. Ushbu suloladan bo‘lgan so‘ngi shoh Yazdijird islom lashkarlaridan yengilgan va qochib yurgan vaqtida Marvda 651-y. da o‘ldirilgan.

N.ning “T.M.A.” asarining to‘rtinchi qismi S. tarixiga bag‘ishlangan. Buyuk adib bu qismda ushbu sulolaning hokimiyat tepasiga kelishi haqida batafsil ma’lumot beradi hamda sulola vakillariga, jumladan, so‘nggi hukmdor Yazdijurdga qadar to‘xtalib o‘tadi. Tarix kitoblarda ularning soni, hukmdorlik yillari turlicha ko‘rsatilganiga e’tibor qaratadi, shuningdek, S. davrining qancha davom etgani haqidagi ixtilofli fikrlarni keltiradi: “...saltanatlarining muddatlarini ham muvofiq bitmaydurlar. Sohibi Guzida besh yuz yigirma yetti yil bitibdur va Banokatiy besh yuz o‘ttiz bir yil bitibdur va Qozi Bayzoviy to‘rt yuz o‘ttiz yil debdur”. Asarda S.dan Ardasher Bobak, Bahrom binni Hurmuz, Shopuri Zulaktof, Bahrom binni Yazdijird, Qubod binni Feruz, No‘shiravon ul-Odil, Xusrav Parvez kabi hukmdorlar zikrlarida ularning hayoti va faoliyatiga doir ma’lumotlar keltirilgani, ayni paytda ular qiziqarli va maroqli tarzda bayon qilinganini ko‘rish mumkin.

S. haqida N. “S.I.” dostonining XIV bobida ham so‘z yuritgan. “To‘rtinchi tabaqa sosoniylar erdilarkim, jahon mulkida jahonbonliq qildilar va rub’i maskun mamlakatin bildilar” deb sarlavha qo‘yilgan ushbu bobda u mazkur sulolani shunday ta’riflaydi:

Ki, to‘rtunchi xayl ulcha shoh erdilar,
Falakqadr-u anjumsipoh erdilar.
Ki, holo adamdur alarg‘a mafar,
Yigirmi durur, dog‘i to‘quz nafar.

Bobda Ardasher Bobakdan boshlab sulolaning boshqa vakillarining har biriga bir baytdan she’r bag‘ishlangan. “T.M.A.”da sulola haqida keltirilgan ma’lumotlar so‘nggi Sosoniy Yazdijurdning arablar tomonidan mag‘lub etilishi va qochib Marvga borgani hamda o‘sha yerda o‘ldirilgani, hokimiyat arablar qo‘liga o‘tganini bayon qilish b-n yakun topadi.

S. tarixiga oid ayrim voqealarning badiiy talqini N.ning “F.Sh.” dostonida ham mavjud. Doston qahramonlaridan biri Xusrav Parvezning prototipi Sosoniy hukmdor Xusrav Parvezdir.

Ad.: *Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Грантовский Э. и др. История Ирана. – М., 1972.*

Q.E, H.H., B.R.

SOQIY I (XV asr, Hirot) – zullisonayn shoir. N. “M.N.” tazkirasida ma’lumot berishicha, Ja’far baxshining o‘g‘li bo‘lib, bolaligidan qator qobiliyatlari b-n ajralib turgan. Turkiy va forsiyda she’riyatning turli janrlarida mahorat b-n qalam tebratgan. Sipohiyligidagi jasorati-yu bahodirligini bu sohaning barcha ulug‘ kishilari e’tirof etib, ta’riflaganlar. Arkoni davlat, hatto sulton qoshida ham e’tibori baland edi. Lekin nimadir bo‘lib, bu sifatlarning birortasi qolmaydi va eldan chiqadi. N. so‘zining nihoyasida Xudodan uning bu tanazzulini iqbolga badal qilishini so‘rab qoladi va uning har ikki tildagi ijodidan bir baytdan namuna keltiradi:

Qilodayi sagi o‘ kun zihi girebonam,
Ki har zamon nayafzoyad chok to ba domonam.

Yoqamning zehini uning itiga bo‘yinbog‘ qil, toki har zamon etagimga qadar yirtilib tushmasin.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

E.O.

SOQIY II (ar.) – may kuyuvchi, davrani boshqaruvchi kishi, kosagul. *Saqqo* kalimasining asosidan hosil qilingan bo‘lib, *“mesh bilan yelkasida yoki hayvonlar vositasida suv tashuvchi kishi”*ni anglatgan. Dastlab diniy bayramlarda, ayniqsa, muharram oyida xalqqa suv tarqatib, pul to‘plagan va uni xayriya ishlariga sarf qilgan kishilarni ana shu – saqqolardan farqlash u-n S. kalimasi ishlatilgan. O‘tmishda “suv bergan, ichimlik ulashgan, suvga qondirgan, tashnalikni ketkazgan, qadah to‘latuvchi, sharob quyib tutuvchi, bazmlarda xizmat qiluvchi, sultonlarning majlislarini boshqaruvchi kishi” S. sanalgan. Shuningdek, S. *“suvchi”, “suv egasi”, “chanqoqlikni qondiruvchi”* kabi ma’nolarni ham ifodalaydi. Mumtoz adabiyotda *may suzuvchi, sharob quyib tarqatuvchi, davrani boshqaruvchi kishi,* ya’ni *kosagul*ga ham *soqiy* deyilgan. Ma’rifiy atama sifatida esa, S. – *ilohiy fayz ulashuvchi, tariqat piri, shayx, kamolotga yetaklovchi shaxs* ma’nolarini ifodalaydi. *S.* deganda, *Alloh, Muhammad (s.a.v.) murshid yoki komil inson* ham tushunilgan. Mumtoz adabiyotda *S.i ruhoniyon* deganda *Odam Ato va farishta Jabroil*ga ishora qilinsa, *S.i Kavsar hazrat Ali*ga, *S.i lahja* birikmasi esa *mutrib va mug‘anniy*ga nisbatan ishlatilgan.

Mumtoz she’riyatda S.ning gulchehra, ozoda, gulrux, dilbar, siymtan kabi bir qator sifatlashlari uchraydi. N. g‘azallarida lirik qahramon – rindning holati, kayfiyati, ayniqsa, soqiy – may quyuvchiga murojaat qilingan baytlarda yanada yorqinroq ifodalangan. Rind yor hajrida qiynalgan, uning jamoliga yetishishda aynan soqiydan umidvor oshiqning o‘ziga xos obrazidir:

Hajrdin o‘ldi Navoiy, soqiyo, tut jomi may,
Ey mug‘anniy, sen navo ohangida qo‘psa qo‘buz.

Lirik qahramon – rind, eng avvalo, oshiq. Uning fikr-u xayoli faqat yori b-n band. Rind may ichishni shunchaki ko‘ngilxushlik deb bilmaydi, balki uning mayxo‘rlikdan maqsadi ham, aslida, ma’shuqa jamoli, uning visolidir. Shu sababli, u maydan S. lablarining *“javhar”*ini topa olmasa, bu mayga tiriklik suvi aralashtirilgan bo‘lsa ham, hech qachon ichmaydi:

Soqiyo, hayvon suyin mamzuj qilsang ichmagay,
Gar Navoiy topmasa may ichra la’ling javharin.

N. g‘azallarida soqiyning yosh va navqiron yigit qiyofasidagi yangi ifodalari ham uchraydiki, bu shoirning yuksak san’atkorligi belgilaridandir.

Davr ayog‘in, soqiyo, qo‘yma yigit joning uchun,
Kim, yigitlik ro‘zgori aysh davroni emish.

Maz.: Ey soqiy, yigit joning uchun davr qadahini qo‘lingdan hech qo‘yma, chunki yigitlik shodlik va xursandchilik fursatidir.

Zero, N. asarlaridagi muayyan qahramonlar shunday yoshlik, beg‘uborlik kayfiyati b-n tasvirlangan. Bu kitobxonda jo‘shqinlik, ko‘tarinkilik, hayotga muhabbat tuyg‘ularini paydo qiladi. *Soqiyi mahvash, soqiyi gulchehra, soqiyi davr, soqiyi davron, soqiyi gulrux, Isaviydam soqiy, soqiyi Xusravnishon, soqiyi hurvash, soqiyi no‘shin, soqiyi kavsar, soqiyi sho‘x, soqiyi ishq, soqiyi shirin, soqiyi ishrat, soqiyi vasl, bazmi tarab soqiylari, soqiyi bazm, no‘shlab soqiy, sabukruh soqiy, dard-u balo soqiylari* kabi poetik birikmalar qo‘llanilgan g‘azallarda ham ana shunday mazmunlar o‘z ifodasini topgan. Ma’lum bo‘ladiki, shoir turli-tuman ijtimoiy-hayotiy, ishqiy-falsafiy, qolaversa, ma’rifiy-irfoniy fikr-qarashlarini yuzaga chiqarishda mazkur timsollardan samarali istifoda etgan. S. *gulchehra, mahvash, sho‘x, ishq, shirin, gulrux, hurvash* kabi sifatlovchilar b-n qo‘llanilganda, an’anaviy tarzda ishq-muhabbat tuyg‘ularini ifoda etgan bo‘lsa:

*Ketur, ey **hurvash soqiy**, mayi kavsar zulolidek,*
Ki, do‘zaxdek xumori hajr jonimg‘a azob aylar.

Ya’ni, ey farishta sifatli soqiy, kavsar bulog‘ining suvidek toza, tiniq may keltir, hijron xumori xuddi do‘zax kabi jonimni azoblamoqda.

Soqiyi davr, soqiyi davron, soqiyi ishrat, bazm soqiysi kabi timsollar shoirning ijtimoiy-falsafiy qarashlarini aks ettiradi. Ijodkorning zamon va zamon ahliga munosabati ko‘pincha lirik qahramonning may quyuvchi – S.dan shikoyati tarzida ifodalanganini ta’kidlash joiz:

*Manga har mayki, tutti **soqiyi davr**,*
Burun qildi ani qon birla mamzuj.

Ya’ni, davr soqiysi, menga har doim may tutishidan avval uni qon b-n aralashtirdi. Yoki boshqa bir baytdagi *Kisronishon soqiylari* timsolida istioraning mazmuniga mos holda ulug‘vorlik, ko‘tarinkilik tuyg‘ulari ustunlik qiladi. *“Xusrav”* so‘zining lug‘aviy ma’nosidagi *“shoh”, “hukmdor”, “yuksak martaba egasi”* kabilar nazarda tutilsa, misralarning badiiy-estetik ta’sirchanligi ortadi:

Daf’ etar dardin Navoiyning o‘shul maykim mudom,
***Xusravi Kisronishon soqiylari** ehson qilur.*

Sabukruh, kavsar, Isaviydam sifatlari b-n ulug‘langan soqiy ma’rifiy-irfoniy g‘oyalar tamsilchisidir. Ma’lumki, N. she’rlaridagi obrazlar komillikka intiluvchi insonlar. Shuning u-n lirik qahramon o‘ziga fano jomidan may tutib, o‘zlikni anglashning og‘ir yukidan xalos aylashni aynan *sabukruh,* ya’ni xushhol, samimiy, ochiq chehrali soqiydan so‘raydi:

***Sabukruh soqiy** fano jomi tutqil,*
Ki, o‘zluk yukidin garonborlabiz.

Kavsar – jannat bulog‘i. *S. kavsar* deganda esa, jannat bulog‘idan haqiqat bodasini, ishq mayini quyib tutuvchi kishi tushuniladi. Shoirning fikricha, soqiyi kavsar tutgan may to‘la qadah oshiqning tashnaligini qondirishga qodir. Diniy e’tiqodga ko‘ra, ***soqiyi kavsar*** timsolida qiyomat kunida jannatdagi Qutsal arig‘idan tashna jonlarga sof zilol suv ulashuvchi – Hazrati Ali (r.a.)ga ishorani ham ilg‘ash mumkin:

*Xumor dofiyi bo‘lg‘aymu **soqiyi kavsar**,*
Bu dayr ichinda mayi ishq ichmaganga to‘lo.

Ma’lumki, Iso (a.s.) payg‘ambar badiiy adabiyotda kishilarni turli xastaliklardan, balo-qazolardan qutqaruvchi, hatto jonsiz tanaga ham hayot baxsh etuvchi timsol sifatida tasvirlanadi. Quyidagi baytda ***Isaviydam soqiyo*** talmehida uning ana shu fazilati ko‘zda tutilgan:

*Kohi yuz birla o‘larmen, **Isaviydam soqiyo**,*
Boda tut xurshidi jomi kahrabo kirdoridin.

Kahrabo – sariq rangli yelimsimon tosh. Uni charmga surkab, somonga yaqinlashtirsangiz, uni o‘ziga tortadi. Mumtoz she’riyatda ayriliq g‘amida sarg‘aygan, zahil yuzni kahraboga nisbat beradilar. Mazkur baytda ham ana shunday mazmun ifodalangan. Ya’ni, ey Iso (a.s.), nafasli, jon ato etuvchi soqiy, yuzim somonday sarg‘arib o‘larman, menga somonlarni qahrabo singari o‘ziga tortib oladigan may ber. Bu yerda mayning ilohiy fayz ma’nosini tushunish o‘rinli bo‘ladi.

N. g‘azallarida *ayoqchi, piri mayxona, piri mug‘on, piri maykada, piri dayr, piri ishq, piri xarobot, piri xammor, mayfurush, mug‘, mug‘bacha, ahli bazm, ahli ishq, ahli sabuh, rindi xarobot, barahman* kabi tushuncha va timsollar ham soqiyning ma’nodoshlari sifatida insonni kamolot yo‘liga boshlab, uni tariqat bosqichlaridan olib o‘tadigan, barcha yomon odatlardan xalos etib, yaxshi fazilatlarga oshno qiladigan, ilohiy ma’rifatdan bahramand qilib, komillik maqomiga ko‘taradigan ma’naviy, ruhoniy rahbar, piri murshidni anglatadi.

***Dayr piri**ning muridimenki, har yon qilsa azm,*
Rindlardin may ko‘tarmakka meni mumtoz etar.

May tutub ko‘nglumni tindur bir zamon,
*ey **mug‘bacha**,*
Kim, zamon bedodi ani lahzayi tindurmamish.

Hajrdin jon yetti og‘zimg‘a olib jon naqdini,
Quyki, kup og‘zini og‘zimga qo‘yay,
*ey **mayfurush**.*

*May ber, ey **barahman**,*
ar mug‘bacha ishqida ko‘ngul,
Bo‘lsa badmast firoqi bila ta’zir etayin.

Umuman olganda, N. she’riyatida ilgari surilayotgan badiiy g‘oyaning yanada teran mazmun kasb etishida muhim rol bajargan S. va uning ma’nodoshlari shoir ijodidagi obrazlar olamining rang-barangligini ham ta’min etadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар; Порлатир И. Усмонли туркчаси луғати.– Анқара, 2006.– Б. 1447. Қараҳан А. Соқийномалар // Эски турк адабиёти тадқиқотлари. – Истанбул, 1980; Мустафо Ниҳат Ўзўн. Усмонлича / Туркча луғат.– Анқара, 2006; Фарҳанги забони тожик. Жилди 2. – М., 1969; Иброҳим Жудий афанди. Луғати Жудий. – Анқара, 2006; Олбайроқ Н. Халқ адабиёти қомусий луғати. – Истанбул, 2010; Очилов Э. Навоий ғазалларида комил инсон тимсоллари// Ўзбек тили ва абадиёти, 2001, 1-сон; Esat Korkmaz. Ansıklopedik Alevilik Bektaşilik terimleri sözlüğü. – Istanbul, 1993; Muhammet Kuzubaş. Sakiname. – Samsun, 2009; Асадов М. Соқийнома: тарих ва поэтика. – Т., 2020.*

M.A.

SOQIYI ALAST – N. ijodida qo‘llangan she’riy timsol. Irfoniy adabiyotda qalbni shayton vasvasasidan xalos etuvchi, nafs alangasidan qutqaruvchi mazhar ma’nosini anglatadi. Mumtoz she’riyatda bundan tashqari *“alast xamr”, “alast bazmi”* kabi timsollar ham ko‘p uchraydi. Bu orqali go‘yoki inson yaratilmasidan avval, Alloh b-n ularning ruhlari orasidagi kechgan ahdlashuvga ishora qilinadi. *“Qur’oni Karim”*ning *“A’rof”* surasida keltirilishicha, Tangrining *“men sizning Rabbingiz emasmanmi?”* degan savoliga, ruhlar *“Rabbimizsan”* deya javob qaytarishadi. Shunga ko‘ra, N. she’riyatida ham S.A. *deganda* Haq, Alloh tushuniladi. Uning sharobi ilohiy inoyat, iymon, poklik va chin e’tiqod ramzidir:

Ketur soqiy, ul mayki, subhi alast,
Aning nash’asidin ko‘ngul erdi mast.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1– 4-жилдлар; Қуръони Карим маъноларининг ўзбекча тафсири. Араб тилидан Абдулазиз Мансур таржимаси. – “Аъроф” сураси, 172-оят.*

M.A.

“SOQIYNOMA” – Sharq mumtoz adabiyotida har bir bandi soqiyga murojaat b-n boshlanadigan bir necha bandlardan iborat bo‘lgan she’riy janr. Shunisi ham borki, nafaqat bandli, balki baytli she’riy shakllar ham soqiynoma mazmuniga ega bo‘lishi mumkin: soqiynoma-g‘azal, soqiynoma-ruboiy kabi. S. u-n bosh fazilat uning mohiyati, mazmunida bo‘lib, ijodkorning hayot, o‘zi mansub bo‘lgan tarixiy davr, ijtimoiy va adabiy muhit haqidagi teran xulosalari yorqin aks etadi. Sharq she’riyatidan ta’sirlangan mashhur nemis shoiri Gyote S.ga baho berib, shunday degan edi: “Soqiynoma – soqiy haqidagi asar bo‘lib, unda shoir soqiy sifatida chiroyli, yosh qahramonni tanlaydi va uni eng go‘zal so‘zlar bilan madh etadi. Mayning ta’siri va ko‘tarinki kayfiyat shoirdagi bunday iltifotni yanada oshiradi. Endi qahramon uning eng ishonchli, sodiq musohibiga aylanadi. Shoir unda teran tafakkur va keng qamrovli bilimni shakllantirishga harakat qiladi. Yuksak darajadagi o‘zaro oliyjanoblik va mehr-muhabbat butun asar mazmunini tashkil etadi”. Darhaqiqat, “ijodkor ruhiy va fikriy olamining badiiy ifoda topishi u-n o‘ziga xos poetik imkoniyatlarga ega bo‘lgan soqiynoma”lar adabiyot tarixida muhim o‘rin tutadi. Biroq XVII asrgacha bo‘lgan tazkiralar va adabiyotshunoslikka oid manbalarda soqiynoma va uning janr xususiyatlari to‘g‘risida hech qanday ma’lumot uchramaydi. Mazkur janr haqida dastlab XVIII asrda yashab ijod qilgan “Xizonai omira” tazkirasining muallifi G‘ulomalixon Ozod shoir Zuhuriy Turshezi S.sini eslash munosabati b-n qisman to‘xtalgan.

Sharq adabiyotida yaratilgan dastlabki S.lar mutaqoribda bitilgan. S. ko‘rinishidagi she’rlarning ilk namunalari esa, Firdavsiyning “Shohnoma” va Nizomiyning “Iskandarnoma” kabi dostonlarida uchraydi. Ularning har ikkalasi ham mutaqoribda yozilgani ma’lum. Shu tariqa, S.larda mazkur vazn yetakchilik qilgan, deyish mumkin. Lekin buni qat’iy qoida deb qaramaslik kerak. Ba’zi tadqiqotlarda Nizomiy va Jomiylarning “Layli va Majnun” tarkibida keltirilgan S.lari hazaj bahrida yozilgani aytilgan. N. esa o‘z S.sini ramal bahrining musaddasi solimi maxbuni maqtu’ vaznida yaratgan. Shuningdek, XIX asrda yozilgan o‘zbekcha S.lar ham aruzning turli vaznlarida yozilgan. M-n, ma’rifatparvar shoir Avaz O‘tarning bir soqiynomasi hazaj bahrida bo‘lsa, boshqasi ramal bahrida bitilgan. Ahmadjon Tabibiy o‘z soqiynomasini sari’ bahrida yozgan bo‘lsa, Ochildimurod Miriyning asari hazaj bahrida yaratilgan.

Hayot go‘zalliklaridan bahramand bo‘lish, umrni g‘animat bilish, uni sevishga chorlash S. janriga xos xususiyatdir. Aksar soqiynomalarda bir zum bo‘lsa-da, hayot tashvishlarini unutib, g‘am va kulfatdan xalos bo‘lish, hayotdan lazzatlanish mazmuni ustunlik qiladi. Shu sababli, S.larda may va soqiy tavsifi ham asosiy o‘rin egallaydi.

May qadimiy davrlardan boshlab Sharq adabiyotida hayot tayanchi, dunyoning qayg‘u va alamlaridan xalos etadigan buyuk hayotiy ne’mat timsoli bo‘lib kelgan. Qolaversa, S.larda may yuksak estetik xususiyatga ega bo‘lib, hayotsevarlik ramzi hamdir. Shu sababdan bo‘lsa kerak, S. “may va soqiy qasidasi”, “sharob va muhabbatni kuylovchi asar”, “soqiy va sharobni madh etib yoziladigan she’r” deb baholangan. S.ning lug‘at tarkibini may, soqiy, mug‘anniy, maykada, mayxona, piri mug‘on kabi obrazlar tashkil qiladi. Ya’ni, S. xamriyat janriga xos mazmunni ifodalaydi. Ammo xamriyat she’rlar tarixiy-etnografik xarakterda bo‘lsa, unga aloqador tushunchalar S.da tasavvufiy ma’noga ega. M-n, xamriyatda soqiy obrazi may bazmlarini boshqaruvchi kishini anglatsa, S.da u Haq ramzi, ruhoniy rahbar timsolidir. Shuningdek, xamriyatda mug‘anniy may bazmlariga jonlilik, ko‘tarinki kayfiyat olib kiruvchi aniq bir shaxs bo‘lsa, soqiynomalarda ilhom beruvchi, Haq yo‘liga kirgan solik qalbini ilohiy sir-asrordan xabardor etuvchi sifatida talqin etilgan. N. S.si mazkur janrning o‘zbek adabiyotidagi dastlabki va eng go‘zal namunasidir. 32 band, 458 misradan iborat mazkur asar “F.K.” devoniga kiritilgan. Taniqli olim A.Hayitmetov “Navoiy lirikasi” monografiyasida shoir S.sini uning hayoti, fikr-xayoli, his-tuyg‘ulari b-n chambarchas bog‘langan va ularni an’anaviy obrazlar b-n emas, to‘g‘ridan-to‘g‘ri aks ettirgan she’r, deb baholagan edi. N.shunos I.Haqqulning yozishicha, *“badiiy ijodda son emas, sifat, misra va qofiya tizimi emas, balki mohiyat va mahorat ahamiyatga egaligini Navoiyning soqiynomasi to‘la tasdiqlaydi”*. Ushbu S. N.ning moddiy borliq haqidagi murakkab falsafiy qarashlarini, hayotiy xulosalarini aks ettirgan o‘ziga xos ijod namunasi bo‘lishi b-n birga, yorqin avtobiografik mazmunga ham ega. Unda mutafakkir shoir o‘z yaqinlari, qalamkash do‘stlari, ustozlari, qolaversa, o‘zi yashagan davrning ijtimoiy-siyosiy va madaniy turmushi, zamon va zamondoshlari haqidagi fikr-qarashlarini, falsafiy mushohadalarini ham bayon qiladi. Shu orqali, shoirning ruhiy olami, dunyoqarashi, o‘ziga xos fazilatlari, zamondoshlari b-n o‘zaro munosabatlari kabi masalalar ham asarda yorqin ifoda etilgan.

S.ning shakli va hajmi uning mazmun talabidan kelib chiqqan bo‘lib, bir necha bandlardan tashkil topgan. Har bir band alohida mavzuga bag‘ishlangan mustaqil asarni eslatadi. Ammo ular umummohiyat nuqtayi nazaridan o‘zaro bog‘lanib, soqiynoma janrini hosil qilgan. Buni asar bandlarining tartibotida ham ko‘rish mumkin. Chunonchi, S.ning *dastlabki bandi Husayn Boyqaroga, II-XX bandlar shahzodalar va shohning yaqinlariga, XXI-XXVII bandlar Navoiyning marhum ijodkor do‘stlari va ustozlari (Mirzobek, Mir Darvesh, Mazidbek, Qambar Ali, Amir Shayxim Suhayliy, Tufayliy, Abdurahmon Jomiy, Sayyid Hasan Ardasher, Pahlavon Muhammad)ga, XXVIII band*

ishq va oshiq iztiroblariga, XXIX bob vafo va davr ahliga, XXX band ham ayrim marhum ijodkorlar (Muammoiy, Xoja Kamol, Mir Sadr, Yor Tanbal, Sabzavoriy)ga, XXXI band esa shoir hayotligi paytida yashab ijod qilayotgan qalamkashlar (Mir Atoiy, Sultonali Mashhadiy, Osafiy, Binoiy, Mir Fanoiy kabi) ta'rifiga bag'ishlangan. *So'nggi XXXII band asarning xulosasi* bo'lib, shoh madhi b-n yakunlangan.

Adabiyotshunos Y.Is'hoqov soqiynomaga bag'ishlangan maqolalarida mazkur asarning N. she'riyatidagi o'ziga xos mavqeyi, uning tarixiy-badiiy ahamiyati, Sharq adabiyotida yaratilgan soqiynomalar va shoir S.sining mushtarak hamda farqli tomonlari haqida ham mulohaza yuritgan. Olim soqiynomada Jomiy marhum, Mo'min mirzo esa, hayot kishi sifatida tilga olinishi, shuningdek, "M.N."ning zikr etilishidan kelib chiqib, u 1492-y.dan keyin va 1497-y.dan oldin yozilgan degan fikrga kelgan. Bunday xulosa chiqarish u-n ham asos bor, albatta. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, 1485-y.da Sulton Husayn Boyqaroning singlisi Badakabegimga uylangan Oltin O'rda xoni Ahmadxon Hoji tarxoniy (Kichik Muhammad) ning o'g'li Bahodir Sulton singillari b-n Hirotga mehmon bo'lib keladi. Husayn Boyqaro ularning sharafiga *"chingiziylar usulida"* katta bir anjuman, ya'ni qurultoy tashkil qiladi. Shohona ziyofat berilib, qimiz va may tortiladi. Qadimiy kuyqo'shiqlar yangraydi. N. S.si mana shu bazm-u jamshid munosabati b-n yozilgan. Shunday bo'lsa-da, S.da qurultoyni ta'riflash bir vosita bo'lib, davrning turli-tuman ijtimoiy, siyosiy, madaniy, axloqiy masalalari haqida ham mushohada yuritilgan. Asarda tasvirlangan tarixiy voqealarning turli sanalarga daxldorligiga qarab, uning ma'lum bir qismi 1485-y.da yozilgan bo'lsa-da, asarni shoir umrining oxirgi yillarida yozib tugatgan, deb xulosa chiqarish ham mumkin.

S. betakror badiiyati, o'ziga xos tuzilishi va poetik san'atlarga boyligi b-n ham e'tiborga molik. Garchi asar bir necha bandlardan iborat bo'lsa-da, ulardagi baytlar miqdori bir-biriga muvofiq kelmaydi. *Asarning I bandi − 41 bayt, II bandi − 13 bayt, III band − 9 bayt, IV band − 8 bayt, V band − 6 bayt, VI band − 6 bayt, VII band − 5 bayt, VIII band − 6 bayt, IX band − 6 bayt, X band − 5 bayt, XI band − 5 bayt, XII band − 5 bayt, XIII band − 9 bayt, XIV band − 5 bayt, XV band − 6 bayt, XVI band − 5 bayt, XVII band − 24 bayt, XVIII band − 21 bayt, XIX band − 14 bayt, XX band − 12 bayt, XXI band − 30 bayt, XXII band − 23 bayt, XXIII band − 13 bayt, XXIV band − 16 bayt, XXV band − 27 bayt, XXVI band − 19 bayt, XXVII band − 19 bayt, XXVIII band − 33 bayt, XXIX band − 24 bayt, XXX band − 10 bayt, XXXI band − 19 bayt va XXXII bandlar − 15 bayt*dan tashkil topgan. Bandlardagi baytlar miqdorining turlicha ekanligida ham o'ziga xos ma'no bor, albatta. Ko'rinadiki, S.ning eng yirik bandi dastlabki bandidir. U Sulton Husayn Boyqaro madhiga bag'ishlangan. 2-band shohning to'ng'ich farzandi, valiahd Badi'uzzamon Mirzo, keyingi band uning ikkinchi o'g'li Shoh G'arib Mirzo, to'rtinchi band undan yosh jihatdan kichik shahzoda Muzaffar Mirzo, beshinchi band esa, undan-da yoshroq Haydar Mirzo haqida. Qizig'i shundaki, bandlardagi baytlar miqdoridan ham ularning mavqeyi va yoshlari o'rtasida farq borligini bilish mumkin. Shu tariqa, qo'yilayotgan masalaning muhimligi, ta'riflanayotgan qahramonlarning shoirga qay darajada yaqinligiga ko'ra, keyingi bandlarda ham baytlar miqdori bir-biridan farqlangan.

S.ning har bir bandi soqiyga murojaat b-n boshlangan. Ularda faqatgina "soqiyo" kalimasi keltirilgan:

Soqiyo, ko'nglum etar boda havas,
Lutf qilg'ilki, erurman bekas.

Nizomiy S.sida bu *"soqiy"*, Hofiz Sheroziyda *"ketur, soqiy" ("bideh, soqiy"),* fors-tojik tilida yaratilgan aksariyat S.da *"kel, ey soqiy" ("biyo, soqiy")* shaklida berilgan. E'tiborlisi, yuqoridagi S.larda soqiyga qarata buyruq, xitob mazmuni ustunlik qilsa, N. S.sida iltimos, yalinish, iltijo kabi ma'nolar ifodalangan.

N. S.si ulardan tuzilishi, mavzuning qo‘yilishi va ifoda usuliga ko‘ra ham farqlanadi. Nizomiy soqiynomasining dastlabki bandida shoirning ichki kechinmalari, hayot va o‘lim haqidagi falsafiy qarashlari aks etgan bo‘lsa, Hofiz bu dunyoning “fitnakor”ligidan shikoyat qiladi. N. asarni shoh Husayn Boyqaroga bag‘ishlangan band b-n boshlagan. Nizomiy soqiynomasining II−V bandlari shoirning bobosi Yusuf, Zakiy Muhammad, onasining xotirasi, tog‘asi Xoja Umar va bu olamdan o‘tgan yor-birodarlari, yaqinlariga bag‘ishlangan. Qolgan bandlarda turli hayotiy-falsafiy masalalar yoritilgan. Hofiz esa o‘z asarini shoh Mansurga bag‘ishlagan. Ko‘rinadiki, N. S.si bu jihatdan Nizomiy asariga o‘xshash. Ammo N.da har bir bandda ma’lum bir tarixiy shaxs madhiga keng o‘rin berilishidan tashqari, zamon va inson taqdiri b-n bog‘liq real hayotiy masalalar ham yoritilgan. Ularda qahramonning fe’l-atvori va fazilatlari, hatto ayrim kamchiliklariga ham ishora qilinadiki, bu b-n tarixiy shaxs haqida muayyan tasavvurga ega bo‘lish mumkin (Chunonchi, *“Yana bir keldi Binoiyki funun, Kasbida aylamadi man’i junun”* yoki *“Mir Sadr o‘zni tutub ahli vifoq, Lek ko‘p edi Badiiyda nifoq”).* Shoh madhining keltirilishi, davrning muvaqqat va o‘tkinchiligidan ogoh etish maqsadida turli tarixiy qahramonlar nomi va hayotining misol tariqasida ko‘rsatilishiga ko‘ra Hofiz va N. S.larida yaqinlik kuzatiladi. Biroq Hofizda Kayxusrav, Jamshid, Kayqubod, Kovus, Nuh, Qorun, Afrosiyob, lashkarboshi Piron, Turon qilichbozi Sheda, Faridun, Parviz, Borbad kabi Eronning afsonaviy hukmdorlari talmeh bo‘lib kelsa, N. asarida bulardan tashqari Temur, Ulug‘bek kabi tarixiy shaxslar nomlari ham keltirilgan. Y.Is’hoqovning yozishicha, N. S.si bu jihatdan Jomiyning “Layli va Majnun”-dagi soqiyga murojaat b-n boshlangan masnaviysiga yaqin turadi. Sababi, unda ham Chingiz va Temurlarning nomi ko‘rsatilgan. Ammo bu badiiy usul Jomiy masnaviysining faqat bir o‘rnida keltirilsa, N. turli ijtimoiy-hayotiy masalalarga munosabat bildirish u-n S.ning bir necha o‘rinlarida talmehga murojaat qiladi. M-n, dastlabki bandda Firdavsiy “Shohnoma”si qahramonlarining nomlari keltirilsa, Bahodir Sultonga bag‘ishlangan bandda Yofasga ishora qilingan. Boshqa bir o‘rinda Qanbar Ali, Mazid, Sulton, Nur Saidbek kabi olamdan o‘tgan amaldor kishilarning nomlari talmeh bo‘lib kelgan. Shunga ko‘ra, N. S.ni faqat shoirona ilhom, poetik to‘qima mahsuligina emas, tarixiy voqelik, real hayot manzaralari badiiy talqin etilgan o‘ziga xos ijod namunasi deb baholash mumkin. S.ning har bir bandini shoir unda ta’riflanayotgan shaxs yoki hodisaga e’tiborni tortuvchi o‘ziga xos tamsillar b-n boshlagan. Jumladan, Suhayliyga bag‘ishlangan band *“Soqiyo, jomg‘a quy maydin sayl, May xurshidu aning jomi suhayl”,* Jomiy haqidagi band *“Soqiyo, jom ketur daryovash”*, Pahlavon Muhammadga bag‘ishlangan band *“Soqiyo, pahlaviyoyin may tut, Pahlaviy lahn ila ko‘nglungni ovut”,* shoirning ijodkor do‘stlariga bag‘ishlangan band *“Soqiyo, do‘stlug‘ni ko‘rguzgil, Do‘st koni qadahi yetkuzgil”,* hayot bo‘lgan qalam ahli ta’riflangan qism *“Soqiyo, ayla to‘la paymona, Manga tutqil qadahi shukrona”* deb boshlangan. Bunday xususiyat soqiynomaning barcha bandlari u-n xarakterlidir.

N. o‘zining go‘zal va favqulodda ta’sirli bu asarini olis Dashti Qipchoqdan tashrif buyurgan Husayn Boyqaroning jiyani, ya’ni Bahodir Sultonga bag‘ishlab yaratgan. Shu sababli, unga madhi keltirilgan XVIII bandda fors-tojik va arabcha so‘zlarga qaraganda, *xon, qurultoy, to‘sto‘g‘on, qimiz, yirov, yoto‘g‘on, yir, to‘ra* kabi sof turkiy so‘zlar ko‘proq ishlatilgan:

Soqiyo, may tutu qo‘yg‘il so‘zni,
Xon qurultoyig‘a yetkur o‘zni.

Sof may jom aro dilkashdur,
To‘stug‘on ichra qimiz ham xushdur.

Ey yirov, sen ham ishingni ko‘rguz,
Yoto‘g‘on birla ulug‘ yirni tuz.

Unda mo‘g‘ul xalqi orasida keng tarqalgan urf-odatlar va marosimlar ham o‘z ifodasini topgan:

Yoto‘g‘onchi-yu yirov tuzgach un,
Sen qadah olu to‘qquz qotla yukun.

Mirzo Ulug‘bekning *“To‘rt ulus tarixi”* kitobida yozilishicha, *“mo‘g‘ul sho‘basi to‘qquz nafardir. Uning dastlabkisi Mo‘g‘ulxon, ularning oxiri Elxon va to‘qquz raqamiga e’tibor mo‘g‘ul firqasi orasida shu vajhdan rivoj topdi. Mo‘g‘ullarning bunday e’tibori tahqiqiga ko‘ra, har martabada to‘qquz sanog‘idan ortig‘ini lozim ko‘rmaydilar”*. Jumladan, ziyofatlarda ham mo‘g‘ullar to‘qquz soniga alohida e’tibor qaratganlar. Mirzo Ulug‘bek O‘g‘uzxonning bir bazmini shunday tasvirlaydi: *“to‘qquz ming qo‘y, to‘qquz yuz ot so‘yildi, to‘qquz ming qimiz meshi va boshqa munosib aboblarni muhayyo qildilar”*. Abulg‘ozi Bahodirxon esa, turk-mo‘g‘ul xalqlari orasida odatga aylangan to‘qquz hadya (to‘qquz ot, to‘qquz chopon, to‘qquz parcha baxmal) haqida ma’lumot bergan. Turkiy xalqlarning raqamlar b-n bog‘liq qarashlarini maxsus o‘rgangan adabiyotshunos S.Jumayeva N. raqamlar vositasida badiiy obraz yaratar ekan, har bir raqam b-n bog‘liq qadimiy qarashlarga tayanganini qayd etadi.

Shuningdek, N. S.si shoir shaxsiyati, ruhiy olami, zamon va zamon ahliga munosabatini bilishda ham g‘oyatda muhim manba sanaladi.

Ma’lumki, ishq tushunchasisiz mumtoz adabiyotni, jumladan, N. ijodini ham tasavvur etib bo‘lmaydi. Borliqning asosi ham – ishq, tiriklik tayanchi ham – ishq, vujudni turli illatlardan poklaguvchi, qalbni jilolantiruvchi, ruhni oliy maqomga ko‘taruvchi ham – u. S.da ham ishq ana shu mazmunda talqin qilingan:

Soqiyo, kel menga tut bodayi ishq
Kim, erur xilqatim aftodai ishq.

A.Qayumov mazkur misralar keltirilgan bandni “Navoiyning o‘z baxtsiz muhabbati to‘g‘risidagi hikoya... (“Sevginoma II”)” deb baholagan. Darhaqiqat, *“Kim nelar qildi meni zorg‘a ishq”* deya zorlanarkan, shoir *“buti sho‘xe”*, ya’ni sho‘x bir go‘zalning beparvoligi, bevafoligi hamda hijron va ayriliqdan shikoyat qiladi. Shoirning davr va davr ahliga munosabati, ayniqsa, badiiy san’atlar vositasida yanada ta’sirli va yorqin tasvirlangan. S.da buning u-n boshqalariga qaraganda, ko‘proq tazod san’atiga murojaat etilgan:

Kimki yorim edi tavri ahsan,
Bo‘ldi jonimg‘a qatiqroq dushman.

Bu o‘rinda *“yor”* va *“dushman”* so‘zlari bir-biriga qarama-qarshi bo‘lsa, mana bu baytda shoirning fikrlari *“vafo”* va *“jafo”* zid ma’noli so‘zlari yordamida tushuniladi:

Bir vafo kimgaki men qildim fosh,
Yuz jafo o‘truda erdi podosh.

Boshqa bir o‘rinda shakldosh so‘zlar orqali davr ahliga mana bunday munosabat bildirilgan:

Kimki madhini dedi necha tilim,
Tiladi qilg‘ay ani necha tilim.

Shu o‘rinda, ta’kidlash lozimki, N. el ichida yurgan obrazli iboralar, oddiy hayotiy o‘xshatishlardan o‘z fikr-tuyg‘ularini ifodalashda samarali foydalanadi. Chunonchi, xalq orasida *“etak silkish”, “ko‘z yumish”* kabi matal va iboralar biror-bir narsadan hafsalasi pir bo‘lmoq, har qanday yumushdan umidini butkul uzmoq ma’nolarida ishlatiladi. S.da ham ular shoirning hayotiy xulosalarini ifoda etgan:

Har ne el qildi talab, men toptim,
Barchadin silkib etak, ko‘z yoptim.

Xullas, N.ning rang-barang she’riy asarlari orasida S. hayotiyligi, qahramonlarining ma’lum bir tarixiy davr va zamonga mansubligi, voqea-hodisalarning yorqin aks ettirilishi b-n ajra-

lib turadi. Mazkur asar shoirning ijodiy merosi, san'atkorligi, shaxsiyatining yuksak qirralarini, qolaversa, u yashagan zamon hamda tarixiy davr xususiyatlarini yanada chuqurroq va kengroq bilishga imkon yaratadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. – Т., 1961; Ҳаққул И. Навоийга қайтиш. 2-китоб. – Т., 2011; Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Т., 1983; Исҳоқов Ё. Низомий ва соқийнома жанри // Ганжалик даҳо (мақолалар тўплами). – Т., 2002; Жаним Р. Турк адабиётида соқийномалар ва ишратнома. – Анқара, 1998; Кортантамер Т. Соқийномаларнинг ўртага чиқиши ва тараққий этишига бир назар // Турк тили ва адабиёти тадқиқотлари. – Измир, 1983; Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи. – Т., 1994; Жумаева С. Рақам, маъно ва тасвир. – Т., 2005; Қаюмов А. Дилкушо такрорлар ва руҳафзо ашъорлар. – Т., 2011.*

M.A.

SOQISOLMAS – joy nomi. Hirot atrofida joylashgan, asosan, dashtlikdan iborat. Shu sababli manbalarda S. dashti deb tilga olingan. Bu dasht Saritog‘ o‘langidan To‘qquz rabotgacha bo‘lgan hududni egallagan. Manbalarda mustahkamlikda tengi yo‘q deb ta'riflanuvchi Neratu qal'asi S. dashtiga yaqin yerda bo‘lgan. U yerga To‘qquz rabot orqali borilgan. 1470-y.da Hisor hukmdori Sulton Mahmud mirzo Amudaryodan o‘tib, Balx va Shibirg‘on viloyatlariga bostirib kirgan. O‘sha paytda Yodgor Muhammad mirzo ham Hirotga qo‘shin tortib kelayotgan edi. Ikki dushman o‘rtasida qolmaslik u-n Sulton Husayn Bayqaro Hirotdan chiqib, S. dashtiga ketgan. N. ham u b-n birga edi. Ular S.da bir muncha vaqt turib, vaziyatning o‘nglanishini kutganlar. Lekin bunday bo‘lmagan, ahvol tobora yomonlashib, qo‘shin ham porokanda bo‘la boshlagan. Shundan so‘ng S.dan To‘qquz rabot orqali Neratu qal'asiga borganlar. Sulton Husayn o‘g‘ruqni (oila a'zolari, xizmatkorlar boshqa yaqin kishilar) shu xavfsiz qo‘rg‘onda qoldirmoqchi edi, lekin qal'a boshlig‘i Ali Tug‘chi unga bo‘ysunishdan bosh tortgan. Natijada, Sulton Husayn va N. o‘g‘ruq b-n birga Murg‘ob bo‘ylariga ketishga majbur bo‘lganlar.

Ad.: *Ғиёсиддин Хондамир. Ҳабиб ус-сияр. – Т., 2013; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985.*

Q.E.

SOG‘AR – may ichadigan idish, piyola, kosa; jom, qadah. Tasavvuf adabiyotida g‘ayb sirlari mushohada qilinadigan, mayxona, maykada, xumxonaga tashbeh qilinadigan orifning qalbi. Mastlik va shavqni ham sog‘ardan tilaydilar.

Haq muhabbatining haddiga yetgan oshiqqa ham ishora qilinadi. Bu oshiqning ishqdan mastligi shu darajaga yetgan bo‘ladiki, oshiq ma'shuqa, o‘z navbatida, ma'shuqa oshiq qiyofasida namoyon bo‘ladi va o‘zi soqiyga aylanadi. Ichida g‘ayb nurlari jilvalanadigan narsa ham ko‘zda tutiladi.

S. istiloh o‘laroq N. g‘azallarida ko‘p qo‘llanadi. M-n, quyidagi baytida bu dunyo g‘amidan najot tilasang, S.ni qo‘lingdan qo‘yma, deydi shoir:

Maxlas tilasang g‘amdin dahr ichra Navoiydek,
Qo‘ymag‘asen ilgingdin sog‘arni magar hargiz.

Yoki:

Netti sog‘ardek safo bersa mening
ko‘nglumga ham
Ulki, sofiy may bila sof etti sog‘ar ko‘nglini.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар; Миръоти ушшоқ; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва таъбироти ирфони. – Теҳрон, 1379; Ризоқулихон Ҳидоят. Риёз ул-орифин. – Теҳрон, 1388 (ҳ.-ш.); Uludağ S. Tasavvuf te-*

rimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005; Асадов М. Соқийнома: тарих ва поэтика. – Т., 2020.

E.O.

SOG‘ARIY (XV asr) shoir, asli Sog‘ar viloyatidan, Hirot shoirlari sirasidan. N. “M.N.”da yozishicha, ro‘zg‘origa yetarli daromadi bor esa-da, g‘oyat baxil ekan. Jomiy Makka safariga otlanganida, S. va yana Vaysiy (q.) degan shoir birga borish istagini bildiradilar. Lekin Vaysiy eshagi yo‘qligi u-n va S. esa qandaydir bahona b-n safardan qoladilar. Shunda mashhur shoir Shayxim Suhayliy quyidagi qit’ani yozadi va bu qit’a el orasida juda shuhrat qozonib ketadi:

Vaysiy-u Sog‘ariy ba azmi xaram,
Gashta budand har dushon safari.
Lek az on roh har du vo mondand,
On yak bexariyu in zi xari.

Ya’ni, Vaysiy va S. har ikkalasi Makkaga safar qilmoqchi bo‘ldilar. Lekin har ikkisi yo‘ldan qoldilar – bunisi eshagi yo‘qligidan, unisi eshakligidan.

S. Hirotda vafot qilgan, qabri Xiyobon atrofida.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

S.G‘.

SOHIBNAZAR MULLO MIRSIDDIQ IBN MULLO – mashhur kotib, “raviyayi Siddiqjon” maktabi asoschisi, nasta’liq va nasxda xushxat bo‘lgan. “L.T.” va “X.” asarlarini bir muqovada jamlab, chiroyli nasta’liq xatida kitobat qilgan. O‘zR FAShI inv. № 3523. 405 varaq.

1142/1729-y.da Sharqiy Turkistonning Yorkent shahrida ko‘chirilgan.

Ad.: *Садр зиё. Тазкират ул-хаттотин, ШҚМ. Инв.1304; Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. – Т., 1991; Собрание восточных рукописей академии наук Узбекистан. VII, 1964.*

Muh.A

SOHIB BALXIY – temuriylar davrida ijod qilgan shoir. Balx shahridan bo‘lgan va umr bo‘yi shu yerda yashagan. Qabri ham Balxdadir. Manbalardagi ma’lumotlar shundan darak beradiki, XV asrning o‘rtalarida Balxda o‘ziga xos adabiy muhit yuzaga kelgan. Aftidan, bunda Jo‘gi mirzoning (Shohrux mirzoning o‘g‘li, Ulug‘bek mirzoning ukasi) bu viloyatga hokim qilib tayinlangani ham muayyan rol o‘ynagan. Jo‘gi mirzo ham akalari Mirzo Ulug‘bek va Sulton Ibrohimlar singari adabiyotga homiylik qilgan. O‘sha vaqtda Balxda Fasih Rumiy, Sayyid Kamol Kachkul, Mavlono Atoiy kabi ulkan shoirlar ijod qilgan. S.B. ham shu muhitning taniqli vakili edi. U katta iste’dod egasi bo‘lgan. Asosan, fors tilida ijod qilgan. Shu b-n birga musiqa, qo‘shiqchilik sohasida ham yetuk san’atkor sifatida tanilgan. N. “M.N.”da S.B.ning o‘z she’rlariga kuylar bastalagani, Xoja Salmonning masnu’ qasidasiga javob bitgani haqida yozadi va “andin ko‘p iste’dodi ma’lum bo‘lur” deydi. S.B. Salmonning yana bir qasidasiga ham javob yozgan. Bundan uning Salmon Sovajiy ijodiga qiziqishi, hurmati va unga payravlik qilgani ma’lum bo‘ladi. N. misol sifatida S.B.ning Salmonning masnu’ qasidasiga emas, boshqa bir qasidasiga yozgan javobining matla’sini keltirgan:

Zi qomati tu ba olam qiyomate barxost.
Qiyomatest qadat gar buvad qiyomat rost.

Ushbu bayt N.ning unga “Bu matla’ xub voqe’durkim” deb bergan bahosining haqligini ko‘rsatadi. Shoir “rost” so‘zining ikki ma’nosidan foydalanib, o‘ziga xos bayt yaratgan. N.ning forsiy devonida S.B.ning bir g‘azaliga yozgan tatabbu’si mavjud. G‘azal tepasiga “Tatabu’yi mavlono Sohib Balxiy” deb sarlavha qo‘yilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

Q.E.

SOHIB DORO (to‘liq ismi: Mavlono Fasihuddin Sohib Doro (XV asr o‘rtalari, Kabudjoma

(Xuroson) – 1511, Hirot) – qasidanavis shoir. Sohib taxallusi b-n ijod qilgan. N.ning yaqin hamsuhbatlaridan. N.ning vafotidan keyin Husayn Boyqaro o‘z kutubxonasiga kitobdor qilib tayinlangan. N. “M.N.”da yaxshigina iste’dodi va tabiatida jundan bahramandlik bor, deb yozadi va ijodidan namuna sifatida quyidagi matla’sini keltiradi:

Do‘ston, to kay ba ko‘yash man’am az
raftan kuned,
Tarki raftan chun naxoham kard,
tarki man kuned.

Tarj.: Do‘stlar, qachongacha mening yor ko‘yiga borishimni man qilasiz, men bu ishni tark qilmayman, bas, siz mendan kechib qo‘ya qoling.

Muammoni ham yaxshi aytishini ta’kidlab, “Poyanda” ismiga aytgan bir muammosini ham keltirib o‘tadi.

Insho fanida mohir bo‘lgan. Shatranjni yaxshi o‘ynagan.

Xondamir “Xulosat ul-axbor” asarida uning ta’rifida shunday yozadi: “Mavlono Fasihuddin Sohib Doro fe’l-atvori va xulqining yaxshiligi, zehnining tozaligi b-n oliy hazrat amir Alisher mulozimlaridan mumtoz va mustasnodir. Ajoyib qasidalar nazm qilishda, muammolar aytishda balog‘atli va tengi yo‘q. Nadimlik shevasini hamda suhbat qurishni yaxshi biladi. Elchilikning mushkul yumushlari va unda aytiladigan gaplarni o‘z holiga yarasha biladi. Shatranj o‘ynash ilmida ko‘p mashaqqatlar chekib, yaxshi egallab olgan. Martabasi hidoyatli amir Alisherning tarbiyati orqasida farqadondan ham yuqorilab ketdi va shu sababdan buzurgvor sohibqiron Sulton Husaynning va nomdor shahzodalarning sirdosh mahrami bo‘lib qoldi”.

S.D. N. vafotiga bag‘ishlab 48 baytlik ko‘ngillarni titratuvchi tarkibband marsiya bitgan. San’atkorona yozilgan mazkur marsiyaning har bayti birinchi misrasidan ta’rix yo‘li b-n shoirning tavallud, ikkinchi misrasidan vafot sanasi chiqadi. U quyidagi matla’ b-n boshlanadi:

Ey falak, bedod-u berahmi bad-in son kardi,
V-ey ajal, mulki jahonro boz vayron kardi.

Maz.: Ey falak, zulm-u shafqatsizlikni haddan oshirding va ey ajal, jahon mulkini yana vayron qilding.

Matla’ning birinchi misrasidan hijriy 844 – milodiy 1441, ikkinchi misrasidan hijriy 906 – milodiy 1501 kelib chiqadi. O‘zining aytishicha:

In nazmki, xushtar omad az obi hayot,
Ta’rixi vasl odat ast-u ta’rixi vafot.

Tug‘ilish va o‘lish ta’rixidan iborat bo‘lgan bu she’r obi hayotdan ham yaxshiroqdir.

S.D. Shayboniyxonning Hirotni zabt etish munosabati b-n ham ta’rix qasida yozgan.

Zayniddin Vosifiy S.D.ning ota tomonidan o‘ziga qarindoshligini aytib, “Badoye’ ul-vaqoye” asarida uning tilidan N. zamondoshlari b-n bog‘liq qator hikoyatlar keltiradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Хондамир. “Хулосат ул-ахбор”дан // Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985; Ҳасаний М. Таърихларда Навоий васфи. – Т., 1991; Воҳидов Р. XV асрнинг иккинчи ярми – XVI асрнинг бошларида ўзбек ва тожик шеърияти. – Т., 1983; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилди 3. – Душанбе, 2004.*

E.O.

“SOHILI UMMONDA SAVDOPESHA XAY...” – “L.T.”ning LXVIII bobidan joy olgan hikoyat. Unga ko‘ra, Hudhud Humoyga javob tariqasida:

Sohili Ummonda savdopesha xayl,
Bahr savdosida sudandesha xayl, –

deydi: Ummon sohilida savdo b-n shug‘ullanib, boyishni ko‘zlagan savdogarlar ko‘p. Ular g‘avvoslarga besh-o‘n dirham bersalar, jonlarini yuz ranj o‘tiga duchor qilib, dengiz qa’ridan sadaf izlaydilar. Agar ular topgan sadaf ichida xoh ming

dona bo‘lsin, xoh podsholar tojini bezovchi dur bo‘lsin, bari bir bu g‘avvosga haq to‘lagan savdogarning mulkidir. Savdogar shu tarzda haqiqiy gavharni qo‘lga kiritadi, g‘avvos esa arzimagan chaqaga ega bo‘lib qolaveradi. G‘avvos-ku, oz bo‘lsa-da, haq oladi, ammo senga shu nasiba ham yo‘q. It kabi suyak b-n nafsingni to‘q tutib yuraverasan. Oqil bo‘lsang, bu kabi behuda so‘zlar so‘zlama, chunki so‘zlaring boshdan-oyoq haqiqatga xilofdir.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

E.Q.

SUBHIY (XV asr) – shoir. O‘ba viloyatining Go‘yon degan chashmasida yashagan. N. “M.N.”da yozishicha, yaqin do‘sti Muhammad Badaxshiy vositasida S. b-n oshno bo‘lgan. N. S. she’riyatini ancha puxta ekanligini e’tirof etadi va uning forsiyda yozilgan bir matla’ini keltiradi.

“M.N.” tarjimoni Qazviniy N. yozganlariga ilova qilib: “Hamisha himmat humoyini (baxt qushi) tahsil va kamolot sari yo‘llar edi”, – deb yozadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

S.G‘.

SUDO’ AFSUNI – tumor, bosh og‘rig‘ini daf qilish u-n yozilgan va bu boshga qo‘yilgan. “F.Sh.” dostonida uchraydi, asar syujetiga ko‘ra, el-u yurt tinchligi yo‘lida murosa yo‘lini tutgan malika Mehinbonu Xusravdan maktub keltirgan qosidga aytadiki, Xusrav yuborgan maktubni o‘pib, go‘yo sudo’ afsuni kabi boshimga qo‘ydim, borib podshohga salomimni yetkazinglar:

Dedi: “Shoh olig‘a ayting salomim,
Yana bu nav’ arz aylang payomim”.

O‘pub maktubni qoshimga qo‘ydum,
Sudo’ afsunidek boshimg‘a qo‘ydum,

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011.*

B.R.

SUYIMA G‘aniyeva – (1932–2018, Toshkent) – n.shunos, matnshunos. F.f.n, prof. Beruniy nomidagi davlat mukofoti (1992), “El-yurt hurmati” (1999), “Buyuk xizmatlari uchun” ordenlari (2008) b-n mukofotlangan, “O‘zbekiston Qahramoni” unvoni sohibi (2015).

N. haqida 20 dan ortiq kitob va risolalar, minglab maqolalar muallifi. S.G‘. mumtoz adabiyotimizni, xususan, N. ijodiy merosini o‘rganish va targ‘ib etishga oid ilmiy tadqiqotlari orqali mamlakatimiz va chet davlatlarda ham mashhur.

1953–1956-yy.da Leningrad davlat universiteti Sharq fakulteti aspiranturasida o‘qib, 1956-y. “Majolis un-nafois”ning 2- va 4-majlislari ilmiy-tanqidiy va adabiy matni” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

S.G‘. “O‘zbek adabiyoti tarixi” besh tomlik kitobining N. ijodiy merosiga bag‘ishlangan 2-tomiga “Navoiyning prozaik va ilmiy prozaik asarlari”, “L.T.”, “M.Q.”, “M.N.”, “X.M.”, “H.S.H.A.”, “H.P.M.”, “V.”, “M.”, “N.J.” va Alibek Rustamov b-n hammualliflikda “M.L.” asari haqidagi qismlarni yozgan hamda kitoblarning nashr etilishida faol ishtirok etgan.

Olimaning dastlabki “Alisher Navoiy” kitobi N.ning ibratli hayot yo‘li, izlanishlari, adabiy-ilmiy hamda davlat va jamoat arbobi sifatidagi faoliyatining ommabop uslubda bayon etilishi, yangi manbalardan foydalanilganligi b-n ajralib turadi.

U N.ning dastxatini Tehronning “Hoki Guliston” nomli muzey fondidan mamlakatimizga olib kelgan. Rossiya, Chexiya, Slokavakiya, Eron, Turkiya, Xitoy davlatlarida bo‘lgan xalqaro anjumanlarda N. qo‘lyozma nusxalari, tayyorlangan tanqidiy matnlari va nasriy asarlari yuzasidan ma’ruzalar qilgan. N. hayoti va ijodi, xususan, shoir nasriy asarlarini keng ko‘lamda o‘rganishi davomida “Alisher Navoiy: hayoti va ijodi” (1961), “Navoiyning prozaik asarlari” (1981), “Navoiy nasri nafosati” (2000), “Navo-

iy yodga olgan asarlar” (2004), “Tazkiranavislik an’analari va tasavvuf” (2010), “Navo topdi Navoiy” (2012) kabi kitob va risolalar, mingga yaqin ilmiy, ilmiy-ommabop maqolalar e’lon qilgan va ular N. adabiy merosini o‘rganishda muhim hissa bo‘lib qo‘shilgan.

S.G‘. tomonidan tayyorlangan “M.N.”-ning ilmiy-tanqidiy matni asarning Vena, Parij, Boku, Toshkentda saqlanayotgan nusxalari asosida amalga oshirilgan. S.G‘. “M.N.”ning yaratilgan davri, yozilishi va qayta tahrir etilish sabablari, g‘oyaviy mazmuni, ijodkorlar hayoti, faoliyati, tazkiraning o‘ziga xos xususiyatlari kabi jihatlarni ilmiy tadqiq etgan. S.G‘. tomonidan “M.N.” ilmiy-tanqidiy matnidagi nusxalar o‘rtasidagi farqlar fiksatsiyalangan va ilmiy apparatda ko‘rsatib borilgan. S.G‘. N. asarlarining mohir tarjimoni sifatida rus tiliga “M.N.” (Собрание избранных), “H.P.M.” (Жизнеописание Пахлавана Мухаммада), “H.S.H.A.” (Жизнеописание Сайида Хасана Ардашера) asarlarini va keyin alohida “Munojot” (Мунаджат. Обращение к богу) asarini rus tiliga o‘girgan. N. mukammal asarlar to‘plami u-n “M.N.”, “X.M.”, “N.J.”, “V.”, “A.”, “N.M.” singari asarlar matni va sharhlarini tayyorlagan. S.G‘. N. Mukammal asarlar to‘plami u-n jami 1400ga yaqin matn sharhlari yozgan. Birgina “M.N.” asari matni u-n sharh va tarjimalarning umumiy soni 700 dan oshadi. Olimaning hayoti va ijodi haqida Sohiba Umarova “Suyima G‘aniyeva ilmiy-adabiy merosi; tadqiqot usullari va mezonlari” nomli monografiya yozgan va nashr qildirgan (2021).

Ad.: *Ҳайитметов А. Навоийшунос олима жасорати // Имом ал-Бухорий сабоқлари, 2007. – № 1; Каримов Н. Суйима Ғаниева // Ўзбек тили ва адабиёти, 1983. – № 3; Ражабова Б. Навоийшунос олима ибрати / Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2022. – 26 август; Самад Асрор. Ўзбекнинг ардоқли Суйимбекаси. – Т., 2012; Умарова С. Суйима Ғаниева илмий-адабий мероси; тадқиқот усуллари ва мезонлари. Монография. – Т., 2021; Ўзбек адабиёти тарихи. 5 томлик, 2-том. – Т., 1977.*

B.R.

SULAYMON (a.s.) – islomiyatdan ilgari o‘tgan payg‘ambarlardan biri. Dovud (a.s.)ning farzandi. 13 yoshida taxtga o‘tiradi va davlatni boshqaradi. S. (a.s.)ning ismi Qur’oni Karimda 17 marta zikr qilingan. Rivoyatga ko‘ra, g‘ayb va shahodat olamidagi jamiyki mavjudot – ins-u jin, dev-u parilar, nabotot va hayvonot bu zotga bo‘ysungan, u barcha qushlar tilini bilgan, shamollar ham uning ixtiyorida bo‘lib, istagan joyiga bir zumda eltib qo‘ygan. S. (a.s.) mo‘jizalaridan biri mis bulog‘i bo‘lib, undan suv o‘rniga mis oqib yotgan, payg‘ambar izmidagi jinlar esa, o‘sha misdan uning xohlagan narsasini yasab berishar, unga dengiz tubidan dur va javohirlar olib chiqib berar edilar. S. (a.s.) ismi A’zam yozilgan uzukka ega bo‘lgan. N. aytadiki, tarixchilarning ittifoqiga ko‘ra, to‘rt kishi butun olamga hukmronlik qilgan. Ulardan ikkitasi payg‘ambardir. Biri Zulqarnayn, biri S. (a.s.), yana ikkitasi kofirdir – biri Namrud, biri Buxtunnasr. S. (a.s.) bir taxt yasatdiki, xalqning butun jangchilari sig‘ardi. Qayoqqa borsa, shamolga buyurar, shu taxt b-n o‘zi va xalqini o‘sha yoqqa olib borardi. Rivoyatlarga ko‘ra, u Shomdan chiqib, nonushtani Istaxrda qilardi. U yerdan chiqib, kechki ovqatni Qobulda yer edi. Dovud (a.s.)dan keyin, masjidi Aqsoni S. (a.s.) tugatgan va shu bilan birga Baytul Muqaddas shahrini ham ta’mirlagan. N. “Sulaymon va mo‘r (chumoli)” voqeasi mashhur bo‘lganidan uni “T.A.H.”-da shunday naql qiladi: “Bir kuni uning buyrug‘i bilan shamol uni va taxtini uchirib ketayotganda, chumolilar shohi qo‘l ostidagilarga: “Tezda inlaringizga kiring, hozir bu yerdan S. (a.s.) o‘tadi. Uning taxti va suronidan sizga zarar etishi mumkin, shoshilinglar” deydi. Aytishlaricha, u yer Naml vodiysi yoki Toif hududida bo‘lgan. S. (a.s.) bu gaplardan xabardor bo‘lgach, chumolilar shohini qo‘liga olib, suhbatlashadi va unga: “biz hech kimga ozor bermasligimizni bilmasmiding. Nega

xalqingni inlariga kiritib o‘zing qolding?” – deydi. Shunda chumoli, “shoh xalqi u-n javobgardir, bu ishni ularga biror aziyat yetmasin, deb qildim, sen Allohning payg‘ambaridan ko‘nglim xotirjam, ammo qavmingdan banogoh biror zarar kelmasin, deb qo‘rqdim”, deydi. S. (a.s.) “mendan ham ulug‘roq zotni bilasanmi?”, deganda, u esa “ha, men sendan buyukman, sening taxting bir jonsiz matoh, meniki esa sening muborak qo‘lingdir”, deydi. S. (a.s.) aytadi: “sening askaring ko‘pmi yo menikimi?” Chumoli javob beradi: “Meniki”. S. (a.s.) aytadi: “mening askarlarim sonini hech kim bilmaydi”. Shunda chumoli imo qilgandi, yetmish ming to‘da chumoli chiqadi. Bir to‘dasining ham sonini bilib bo‘lmasdi. S. (a.s.) bu voqealardan taajjubga tushadi. Uni chigirtka oyog‘i bilan mehmon qiladilar. Ziyofatdan keyin ular yana yo‘lda davom etishadi”. S. (a.s.) b-n Hudhud voqeasi, Sabo Malikasi Bilqisning uning huzuriga kelib, nikohiga kirishi ham S. (a.s.) hayotidagi ibratli voqealardandir. N. ijodida Sulaymon va chumoli munozarasi, Bilqis qissasi, Ismi A’zam naqsh qilingan uzuk xosiyati va jinlarning xizmat qilishi kabi voqealar shoir ijodida turli maqsad va yo‘nalishlarda o‘z ifodasini topgan. Shoir davr hukmdorining mulk-u saltanatini S. (a.s.) podsholigiga o‘xshatadi:

Bo‘yla mulk-u umrdin so‘ng jin-u ins-u
vahsh-u tayr
Hukm-u amringg‘a Sulaymondek musaxxar
bo‘ldi tut.

N. “Sulaymon va mo‘r” qissasini talmeh sifatida keltirib, undan ibrat olishga chaqiradi:

Ne ellanmaqdur, ey shah, mo‘r xaylidek
cherigdinkim,
Sulaymondek bu vodiy ichra barbod o‘ldi
chandinlar.

Shoir bir baytida iyhom san’ati vositasida Bilqisi zamona (Xadichabegim)ning N. she’rlariga tahsin o‘qigani va bu maqtov shoir u-n S. (a.s.) mulkiga teng bo‘lganini aytadi:

Gar Navoiyg‘a Sulaymon mulkicha
bordur ne tong,
Bilqisi zamon nazmini tahsin aylamish.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Ислом энциклопедияси. – Т., 2004; Носириддин Бурҳониддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. – Т., 2009; Пайғамбарлар тарихи (исломият тарихи). – Т., 2014.*

S.R.

SULAYMONIY – (XV asr) shoir. N. “M.N.”da S. Abulqosim Bobur xizmatida bo‘lar va badiha (q)ni ravon aytar edi, – yozadi. N. Hofizning bir g‘azali tatabbu’ida yaratgan she’ridan ikki bayt keltiradi, so‘nggida yozadi: “Va mashhur mundoqdurkim, bu ab’yot Mavlono Hakim tabibning xotini Mehriningdur va bu faqir siqa (ishonchli) eldin eshittimkim, Sulaymoningdur, vallohu a’lam! (Xudo biluvchandir)”. “M.N.” tarjimonlari Faxriy va Qazviniylar bu baytlar Mehrining ekanligini tahqiq qilib va N.ning yuqoridagi so‘zlaridan keyin o‘z fikrlarini bayon etganlar. Faxriy Mehri tatabbu’ qilgan g‘azaldan N.ga qo‘shimcha tarzda yana 4 bayt keltiradi. Qazviniy esa Mehri Hofizning aksar g‘azallariga mehriy javob yozganini aytadi va uning hayoti b-n bog‘liq bir necha mayda she’rlarini keltiradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

S.G‘.

SULAYMONOV Hamid (1910–1979) – O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi (1964), adabiyotshunos, matnshunos. Beruniy nomidagi davlat mukofoti sohibi (1976). S.H. Moskva Kinematografiya institutini (1932) tamomlagan bo‘lishiga qaramay, keyinchalik filologiya sohasida faoliyat yuritgan. S.H. Toshkent pedagogika

institutida talabalarga dars berdi. O‘zR FA Til va adabiyot institutida (1941–1945) aspiranturada tahsil olib, 1962–67-yy.da mazkur institutda bo‘lim mudiri bo‘lib ishlagan. S.H. yurtimiz qo‘lyozma boyliklarini topish va tiklashda hamda Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyini tashkil etishda ulkan faollik ko‘rsatgan. 1967–69-yy.da. Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi direktori, 1978–79-yy. Qo‘lyozmalar instituti direktori lavozimida faoliyat yuritgan. Olimning asosiy ilmiy yo‘nalishi N. hayoti, ijodini o‘rganish, shoir devonlarining qo‘lyozmalarini aniqlash, tadqiq va nashr etishga bag‘ishlangan. 1955–1961-yy.da f.f.d. ilmiy darajasini olish u-n yozilgan “Alisher Navoiy lirikasiniig matnshunoslik tadqiqoti” (“Текстологи ческое исследование лирики Алишера Навои”) dissertatsiyasi uch jilddan iborat bo‘lib, 1-jildda amalga oshirilgan amaliy va nazariy ishlar tahlili, 2-jildda “X.M.” devonlarining shoir yaratgan joylashuvini aniqlash va aniqlangan qo‘lyozmalardagi o‘rnini ko‘rsatib berish, 3-jildda ilmiy-tanqidiy matn joylashtirilishi rejalashtirilgan. 1-2-jildlar yakunlangan, biroq 3-jild o‘rganilishi lozim qo‘lyozmalar mavjudligi sababli yaratilmasdan qolgan.

S.H. tomonidan “D.F.” qo‘lyozmalari aniqlanib, nashr qilingan. Olim N. qo‘lyozmalari bibliografiyasi (1946–47)ni tuzgan va dunyoning yirik kutubxonalarida saqlanayotgan “B.B.”, “N.N.” devonlarining N. qalamiga mansubligini isbotlab, O‘zbekistonga keltirilishiga muvaffaq bo‘lgan. N.ning 1946-y.da ko‘chirilgan “Ilk devon”i qo‘lyozma faksimil nashri S.H. tomonidan aniqlanib, nashrga tayyorlangan (1968). “X.M.” (1958–1960), 1963–1965-yy.da nashr etilgan 15 tomlik Alisher Navoiy “Asarlar”i (1–4-tomlar), 20 tomlik “Mukammal asarlar to‘plami” (3–6-tomlar), shoir devonlaridan saralab olingan saylanma hamda tarjima nashrlarni amalga oshirgan. S.H. ilmiy faoliyatida “X.M.” tadqiqiga keng o‘rin ajratilgan. Olim tomonidan tuzilgan “X.M.”ning ilmiy-tanqidiy matni u-n yigirmaga yaqin qo‘lyozma asos qilib olingan. 1959–1960-yy. oralig‘ida “X.M.” ilk marta to‘liq nashr qilingan.

1960–70-yy.da shoir asarlarining noyob manbalarini yurtimizga keltirish b-n bog‘liq muhim manbashunoslik izlanishlarini davom ettirib, jahon kutubxonasi fondlaridan 8 kulliyotini aniqlagan va katta qiyinchiliklar evaziga Parij kulliyoti fotonusxasi O‘zR FA Qo‘lyozmalar instituti (hozirgi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi)ga keltirilgan. Olim F.Sulaymonova b-n birgalikda “Alisher Navoiy asarlariga ishlangan rasmlar” (1982) albomini nashr ettirgan. S.H. ning N. lirikasi manbalarini aniqlash, o‘rganish va targ‘ib qilishdan tashqari Hofiz Xorazmiy “Devon”i, Boburning “Aruz” risolasi qo‘lyozmalarini topishdagi xizmatlari ham beqiyos. S.H. 1961-y. f.f.d-ri, ilmiy darajasi, 1971-y.da prof. ilmiy unvonini olgan.

Ad.: *XX аср ўзбек мумтоз адабиётшунослиги. Антология. (Тузувчи Б.Каримов ва бошқ.) – T., 2016; Намозова З. Навоий лирикаси матншунослиги тадқиқи тадрижи (Ҳамид Сулаймон илмий фаолияти асосида). Ф.ф.б. фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – T., 2020.*

E.Q.

SULAMIY Muhammad Abu Abdurahmon ibn Husayn ibn Muhammad ibn Muso Azdiy (X asr) – nishopurlik mutasavvif olim (936–1012-y. Nishopur). Uning otasi Husayn ibn Muhammad va bobosi Abuamiriy Sulamiy o‘z zamonasininig so‘fiysi, Shibliyning suhbatdosh do‘sti bo‘lgan. S. dastlabki ta’limni bobosi va otasidan, keyinchalik Nishopurning mashhur shayxlaridan oladi. Uning dunyoqarashiga Abunasri Sarrojning “Al-luma’” asari ta’sir ko‘rsatadi. S. Qur’on haqiqatlari haqida “Haqoyiqi tafsir”, tasavvuf ta’limoti xususida “Tabaqot us-sufiya” va boshqa 30 ga yaqin asar yozadi. Bu asarlarning aksariyati saqlanib qolmagan. Shulardan ba’zilari haqida kamroq ma’lumot mavjud. M-n, “Al-ixvat val-axavot us-sufiya”, “Odob us-sufi-

ya”, “Torix us-sufiya”, “Risolat ul-malomatiya”, “Sunan us-sufiya” va boshqalar. Bu asarlar keyingi mutasavvif olimlar u-n asosiy manba bo‘lib xizmat qilgan.

Manoqibi Jomiy muallifi Abdug‘affor Nizomiyning yozishicha, N. Jomiyning oldiga S. asarlaridan dars qilib, o‘qish u-n keladi va Jomiyda “Tabaqot us-sufiya” ning qadimgi Hirot (fors) tilida nusxasi bor edi. N. ustozidan hozirgi Hirot tilida yozishni iltimos qiladi. Mavlono Jomiy N. iltimosiga ko‘ra “Nafahot ul-uns” asarini yozadi.

Ba’zi manbalarda, “Tabaqot us-sufiya”ning asl nusxasi yo‘qolgan, mutasavvif olim Abdulloh Ansoriy Hiraviy manbalar asosida kitobni qaytadan tiklab, uni “Tabaqot ul-ansoriy” deb nomlagan deyilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Абдувосеъ Низомий. Манокиби Мавлоно Жомий. ШМК. – 1344/7.*

Muh.A.

SULTON – 1. Musulmon sharqi davlatlarida hukmdorlarga beriladigan unvon, titul. Ayrim davlatlarda bu titul faqat oliy hukmdorga tegishli bo‘lgan, jumladan, Usmoniylar saltanatida shunday edi. Ularda toj-taxt egasigina S. deb ulug‘langan. Boshqa ba’zi davlatlarda S. so‘zi hukmron sulolaning barcha vakillariga nisbatan ham qo‘llangan. Shayboniy o‘zbeklari davlatida esa o‘ziga xos tartib bo‘lgan. Ularda oliy hukmdor xon deb atalgan. S. unvoni esa hukmron sulolaning boshqa vakillariga berilgan. Xonlar taxtga o‘tirmasidan oldin sulton deb atalgan, ya’ni sulton xonga ko‘ra pastroq titul hisoblangan. M-n, Ko‘chkunchixonni u hali xon bo‘lmasidan oldin Ko‘chkunchi sulton, Ubaydullaxonni esa Ubaydulla sulton deb ataganlar. Keyinchalik ular xon bo‘lganidan so‘ng, Ko‘chkunchixon, Ubaydullaxon nomlari b-n zikr qilinganlar. Xonlikka erishmagan shahzodalarning barchasi S. deb atalgan. Temuriylarda bu unvon sulolaning barcha a’zolariga nisbatan qo‘llangan. Buni N. asarlarida ham ko‘rishimiz mumkin. N. uni oliy hukmdorga, ya’ni Sulton Husayn Boyqaroga va shahzodalarga nisbatan ham qo‘llaydi. M-n, Badiuzzamon Mirzoni Sulton Badiuzzamon deb ataydi, shuningdek, boshqa temuriy shahzodalarni ham shunday deb ulug‘laganini ko‘rishimiz mumkin. Lekin, albatta, u birinchi navbatda shohni ulug‘lashda bu tituldan foydalanadi. M-n, “V.”da shoh haqida shunday yozadi: “Salotindin ul sultoni sultonnishon zamonida, balki oliy ostonida qulluqg‘a mashg‘ulmizkim: Nazm:

Bari shohlar ichra zoti aning,
Shahanshohlar ichra sifoti aning.

Sultonekim, “as-sultonu zillulohi fil arzi” javohiri bila sun’ ilki humoyunfol chatr hoshiyasin murassa’ qildi...”. O‘z asarlarining ko‘p o‘rinlarida N. Husayn Boyqaroni Sulton Sohibqiron deb ataydi. Jumladan, “M.N.”da o‘z qarindosh-urug‘larining Husayn Boyqaroning boyrilari ekani haqida shunday yozadi: “Agarchi bu faqirning qavm va xayli Sulton Sohibqironning boyri qullari va mavrusiy bandalaridur...”.

2. Biron soha vakillarining, guruhning, tabaqaning peshvosi, ular orasida eng yuksak maqomga ega bo‘lgan kishi. M-n, N. ulug‘ shayxlardan Boyazid Bistomiyni “Sulton-ul orifin” (oriflar sultoni) deb atagan: “Sulton-ul orifinni g‘amgin ko‘rub, muridg‘a savol tili ochilg‘oni va ul shofiy javoblar bila anduhluq ko‘nglun xoli qilg‘oni”.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Вақфия. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т., 2007; Нажмиддин Кубро. Тасаввуфий ҳаёт. – Т., 2004; Раҳмонова З. Ишқ, ирфон ва иршод. – Т., 2021.*

Q.E.

SULTONLIK – badiiy adabiyotda ham zohiriy, ya’ni mulk, ham botiniy, ya’ni ma’no shohligi mazmun-mohiyatida qo‘llanilgan.

Ma’lumki, har bir davr va zamon o‘z ma’naviy qo‘riqchilariga ega ma’nosidagi fikr nafaqat islomiy, balki barcha diniy qarashlarga xos. Valiylar, komil murshidlar ma’naviy olam podshohidirki, ularni *Sulton, Shoh* deb ham ataydilar. Bu shohlik maqomini Junayd Bag‘dodiyning: “Agar bizning qanday hol ichra yashashimizni sultonlar bilishganida edi, unga erishmoq u-n, hech shubhasiz, bizga qarshi jang boshlardilar”, – iqroridan ham anglasa bo‘ladi. N. ham bir baytida shunday deydi:

Ey g‘aniy, ushshoqdin mustag‘niy o‘ldung,
bilmading
Kim, fano ahlig‘a sultonlig‘din istig‘no emish.

Bu sultonlar ijtimoiy-siyosiy vaziyatlarni ham boshqargani tarixdan ma’lum. Ulardan himmat so‘rash, ma’naviy quvvatlari b-n himoyalanish shoh-u gado u-n birday. Hatto hukmdorlarning taxtga kelishida ham qutbi irshodlarning musabbibligi bor hodisa.

Badiiy adabiyotda darvesh va sulton maqomi ishq yo‘lida teng qaralgan:

Agar husn o‘lsa qotil, zor ne darvesh-u ne sulton,
Va gar ishq o‘lsa komil,
yor ne hinduvu ne o‘zbak.

Ba’zi lug‘atlarda shoh, sulton martabasi tariqatda ilk bor Kirmoniy hazratlariga berilgan, deya ma’lumot beriladi. Umuman olganda, avvalo, murid murshidining jami amr va hukmlariga bo‘ysunadi. Shu bois nafs jihodida shoh – solikning piridir.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Вақфия. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т., 2007; Нажмиддин Кубро. Тасаввуфий ҳаёт. – Т., 2004; Раҳмонова З. Ишқ, ирфон ва иршод. – Т., 2021.*

Z.R.

SULTON ABUSAID (1425–1469, Qorabog‘) – Temuriy hukmdor. Uning shajarasi Amir Temurga quyidagi tarzda ulanadi: Abusaidning otasi Sulton Muhammad mirzo, uning otasi Mironshoh mirzo, uning otasi Amir Temur. S.A.ning otasi Sulton Muhammad podshohlik qilmagan. S.A. ning yoshligi Samarqandda o‘tgan. Uning siyosat maydoniga chiqishi Ulug‘bek mirzo hokimiyatining zaiflashuvi tufayli yuzaga kelgan vaziyat b-n bog‘liq edi. Bunday holatni hokimiyat u-n kurash boshlashga qulay deb hisoblagan S.A. arg‘un qabilasi yordamida taxtni qo‘lga kiritmoqchi bo‘lgan, lekin muvaffaqiyatsizlikka uchragan (1449). Abdullatif mirzoning fitna natijasida o‘ldirilishi S.A.ga yana bir imkoniyat berdi va u Abdullatifdan so‘ng taxtga o‘tirgan Abdullo mirzoga qarshi kurash boshladi hamda 1451-y.da hokimiyatni qo‘lga kiritdi. Keyinchalik esa Shohrux Sulton avlodlarini bartaraf qilib, Xurosonda ham o‘z hokimiyatini o‘rnatdi (1458). Sohibqiron Temur Ko‘ragon davlati singari buyuk saltanatni orzu qilgan Abusaid mirzo Movarounnahr va Xuroson b-n qanoatlanmay, Iroq va Ozarbayjonga yurish qiladi va 1469-y.da Qorabog‘da Oqqo‘yunli qo‘shini tomonidan mag‘lub qilinib o‘ldiriladi. Hukmdorlik yillarining katta qismi urush va yurishlarda o‘tgani sababli Abusaid mirzo mamlakatning madaniy, iqtisodiy, adabiy, ilmiy hayotida katta iz qoldirmagan, lekin uning Xuroson va Movarounnahrni qaytadan birlashtirgani, ulkan hududda barqaror hokimiyatni qaror toptirgani muayyan ijobiy ahamiyatga molik bo‘lib, mazkur hududlarning iqtisodiy, xo‘jalik hayotida bir muncha jonlanish yuz berishiga olib keldi.

S.A. N.ning hayoti va taqdirida ham muayyan rol o‘ynagan. Lekin bu ijobiy rol emas edi. Ma’lumki, buyuk shoirning ota-bobolari temuriy hukmdorlar saroyida xizmat qilganlar. N. ham ana shu oilaviy an’ana ta’siri tufayli bo‘lsa kerak, S.A. saroyiga kelgan, lekin mirzo boshqa temuriy hukmdorlardan farqli ravishda N.ga yaxshi iltifot ko‘rsatmagan. Bu xaqda tarixchi Mirxond shunday ma’lumot beradi: “Abusaid Sulton zamonida ... bir necha kunni o‘sha iqbol oshyonlik ostona mulozamatida o‘tkazdi, ammo

o‘z holiga munosib rioyat va tarbiyat topolmadi”. Abusaid mirzoning N.ga bunday sovuq munosabati sabablari haqida adabiyotshunosligimizda fikr-mulohazalar bildirilgan, jumladan, shoirning Abusaidning siyosiy raqibi Sulton Husayn mirzo b-n do‘stligi, uning tog‘alarining ham Sulton Husayn tarafdorlari bo‘lganlari va shu tufayli S.A. tomonidan qatl etilganliklari va h.k.lar aytib o‘tilgan. N.ning oxir-oqibatda Hirotni tark etib, Samarqandga ketadi. Umuman, shoir va Abusaid munosabatlari murakkab bo‘lib, hali o‘rganishni, aniqlik kiritishni talab qiluvchi jihatlari bor. Faqat bir narsa ayon – N. S.A. davrida ro‘shnolik ko‘rmagan. Uning ijod qilishi, buyuk orzu va rejalarini amalga oshirishi u-n zarur bo‘lgan shart-sharoit bo‘lmagan. S.A. hukmronligi davrini N. o‘z hayotining eng og‘ir yillari sifatida tilga oladi. Jumladan, shoirning “Masnaviy“ (Sayyid Hasanga maktub) asaridan olingan quyidagi misralarda ham uning o‘sha vaqtlardagi og‘ir ruhiy holati va moddiy qiyinchiliklari o‘z aksini topgan:

Menga bu el ichra ne bir hamdame,
Ki bir dam ikovlon deyishsak g‘ame.

Ne shoheki topsa ishim ixtilol,
Madihig‘a ko‘rguzamen ishtig‘ol.

Ne bir ahli davlatdin oncha umid,
Ki andin navo topsa bir noumid.

Ne vajhi maoshe muqarrar menga,
Ki bo‘lg‘ay farog‘e muyassar menga.

Ne bir hujrakim kom topqay ko‘ngul,
Dame anda orom topqay ko‘ngul.

Faqat bu emas, N. S.A. hukmronligi davrini mamlakat, xalq hayotining ham og‘ir yillari, zulm avjiga chiqgan adolatsiz zamon sifatida tasvirlaydi. Uning yozishicha, zo‘ravonlik, zulm shu darajadaki, odamlar arzimagan chaqa u-n qatl qilinadi:

Qaro pul uchun aylabon qatl fan,
O‘luktin ta’ma aylab ammo kafan.

N. bu zulm va adolatsizlik bevosita shohning o‘zi tomonidan ham sodir etilishini ta’kidlaydi:

Ham el manzilin shoh katakdek buzub,
Tovug‘ o‘rnig‘a chug‘z o‘lturg‘uzub.

Buyuk mutafakkir shoirning “H.S.H.A.” asarida Sulton Abusaidning qimmatbaho toshlar, javohirlarni odamlardan tortib olgani va elga ko‘p zarar yetkazgani haqida yozadi. S.A. siymosi va N.ning unga bo‘lgan munosabatining ayrim jihatlari “S.I.” dostonining yigirma to‘qqizinchi bobida o‘zining badiiy talqinini topgan. N. bu o‘rinda mazkur shohni o‘z ishiga puxta, uddaburon hukmdor sifatida ta’riflaydi, lekin uning bu fazilatini yuvib ketuvchi boshqa bir aybini – odamlarning, hatto lashkarning ko‘nglini topa olmaganini, hamma undan norozi ekani va aynan shu hol Abusaidning halokatiga sabab bo‘lganini ta’kidlaydi. Mazkur fikrlar va talqinlar N.ning S.A. shaxsi va faoliyatiga bo‘lgan munosabati va bahosidan dalolat beradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳолоти Саид Ҳасан Ардашер. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Абдураззоқ Самарқандий. “Матлаъ ас-саъдайн ва мажмаъ ал-баҳрайн” 2-жилд. – Т., 2011; Ўзбек адабиёти тарихи. 5 жилдлик, 2-жилд. – Т., 1977; Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий: Манбаларнинг қиёсий-типологик ва текстологик таҳлили. – Т., 2011; Ҳаққулов И. Навоийга қайтиш. 4-китоб. – Т., 2021.*

Q.E.

“SULTON ABU SAID KO‘RAGON...” HIKOYATIKIM... – “S.I.” dostonidagi mustaqil syujetli she’riy hikoyatlardan biri. Iskandarning Doro b-n urushi, Doro qo‘shinlarining qo‘li baland vaqtida noiblaridan ikkisining o‘z

shohiga qarshi chiqib, uni og‘ir yarador etishi bobiga ilova qilingan. Bob va ilova hikoyatda N.ning davlatni boshqarish, mamlakatni tutish, el-u yurt osoyishtaligi va farovonligini ta’minlash yo‘l-tadbirlari hamda odil va xalqparvar hukmron haqidagi siyosiy qarashlarining muhim bir moddasi – “shohdin xalqi xursand, “sipohi esa rozi” bo‘lishiga erishish kerakligi, yo‘q ersa “zarurat chog‘i o‘z xayli dushmanga yor tutunib” shohni xarob etishi mumkinligi bayon etiladi. Bu g‘oya tarixiy shaxs S.A.S. halokatining sabablarini ochish jarayonida ishonarli namoyish etiladi. Xuroson va Movarounnahrdan tashqari yana qator yurt-u o‘lkalar hukmroni bo‘lgan S.A.S.ning navbatdagi yurishlaridan birida mag‘lub bo‘lib, o‘ldirilishi sabablarini N. bu hikoyatda hukmronning boylikka hirs qo‘yishi, “xazina yig‘ishga bo‘lgan cheksiz” mayli, xalqini esa moddiy qiyinchiliklarda ushlashi (“tanqis tutishi”), natijada, xalqi ham, sipohlari ham undan “norizomand” bo‘lgani b-n izohlaydi, uni hukmron tabiatidagi jiddiy “ayb” deb hisoblaydi. S.A.S.ning Tabriz-u Rumga yurishi eng nozik va hal etuvchi vaqtida norozi sipohi shohdan yuz o‘giradi, so‘ng dushman tomonga o‘tib, unga ko‘maklashadi, oqibatda shoh qatl etiladi. Tarixiy voqeaga asoslangan hikoyatda N. xalq b-n hukmron, shoh b-n sipoh birligi lozimligi kabi o‘z davri u-n muhim va dolzarb bo‘lgan g‘oyani badiiy bo‘yoqlarda hamda aniq hayotiy taqqoslar vositasida jonli ifodalay olgan:

Ne shahdiki, atboyi xushnud emas,
Pushaymonlig‘i ish chog‘i sud emas.

Sipahdin judo shoh erur bir kishi
Ne bo‘lg‘usidur bir kishiiing ishi?!

Qurur chun gulistondin ayrildi gul!
Ki, bir luqma erur badansiz ko‘ngul!

Aningdekki, xushdur sipah birla shoh
Ham andok durur shoh birla sipoh.

Shahu xayl – ma’shuq-u oshiq kerak!
Ne ishkim Qilurlar – muvofiq kerak!

Shuni ham aytish kerakki, saj’ bilan yozilgan nasriy sarlavhada hikoyatning ixcham mazmuni va bosh g‘oyasi juda ravshan yoritilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳолоти Саид Ҳасан Ардашер. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

A.A.

SULTON AHMAD MIRZO – Amir Temurning o‘g‘li Mironshohning nevarasi, ya’ni Saydi Ahmad Mirzoning farzandi. U Sulton Husayn Boyqaroning kichik opasi Oqobegimga uylangan edi. Xuroson Sulton Husayn Boyqaro qo‘liga o‘tgach, S.A.M. Hirot shahrining dorug‘asi (hokim, boshliq) etib tayinlanadi. N.ning shu munosabat b-n yozgan qit’asi ham bor. S.A.M.ning otasi Sayyid Ahmad (Saydi Ahmad) mirzo shoir bo‘lgan. Shuning u-n N. S.A.M. haqida “Ota jonibidin xushtab’liq anga mavrusiydur”, – deb yozadi. N. S.A.M. hukmronligi davrida (Hirotda hokim, dorug‘a bo‘lgani nazarda tutilgan) hech kim undan shikoyat qilmaganini ham ta’kidlab o‘tadi. U umrining oxirigacha mazkur mansabda qoyim turadi. N. “Soqiynoma”sining bir bo‘limi S.A.M.ga bag‘ishlangan. N. unda S.A.M.ning vafot etgan o‘g‘li Kichik Mirzoni eslab, S.A.M.ga murojaat qiladi:

Lek dermen qani ul ko‘zungga nur,
Jismingga quvvat-u ko‘nglungga surur.

Uni “xusravi gardunrif’at”, “donishvar”, “saltanat bog‘ida sarvi gulchehr”, “ilm aflokida Birjis mahal” deya ulug‘lagan. N.ning S.A.M.ga bo‘lgan yuksak ehtiromi, hurmat-e’tibori asarning har bir baytida yaqqol seziladi.

Tut angakim, erur ish ogohi,
Mafxari dudayi Mironshohi....

Shahri Hay, mulk-u hashamni ko‘rdung,
Sen dog‘i mulk-u hasham ko‘p surdung.

Anglading shohlig‘ ahvolini ham,
Ko‘ragon taxti-yu iqbolini ham...

“M.N.” tazkirasida S.A.M. haqida quyidagicha ma’lumot berilgan: “Sulton Ahmad Mirzo – darveshvash, yaxshi axloqlik, pisandida atvorliq, odamisheva kishidur. Ota jonibidin xushta’bliq anga mavrusiydur. Yillar Xuroson taxtida hukumat qildikim, hech kishi andin shikoyat qilmadi va ta’n etmadi”. Tazkirada S.A.M.ning shohga yaqinligi, shoirlik mahorati haqida ham kengroq ma’lumot berilgan: “Va Sulton sohibqirong‘a ota masobasidadur va ikki devon ixtiyori va mulk-u mol mushorun ilayhi (ko‘rsatilgan, nomi zikr qilingan) va sipohi va cherik mu’tamadun alayhi (e’tiborli, hurmatli) uldur va gohi nazm ham aytur”. Bu fikrlarni soqiynomadagi qarashlar yanada to‘ldiradi:

Barcha shohlarg‘a ato o‘rnig‘asen,
Yo jadi komravo o‘rnig‘asen.

Sanga oliy boridin martaba ham,
Yana ko‘prak baridin tajriba ham.

Nazm-u nasrig‘a Utorud maftun,
Har savol etsa, javobida zabun.

“M.N.”da S.A.ning quyidagi bayti keltiriladi:

Sen kibi sho‘xi sitamgar dunyida paydo qani?
Sehr bobida ko‘zungdek kofiri yag‘mo qani?

Ko‘rinadiki, N. asarlarida S.A.M. haqida keltirilgan ma’lumotlar bir-birini to‘ldirib, uning shaxsiyati, yuksak insoniy fazilatlari, shoirlik iqtidori haqidagi qarashlarni aniqlashtiradi va boyitadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Асадов М. Соқийнома: тарих ва поэтика. – Т., 2020; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 1989; Файзиев Т. Темурийлар шажараси. – Т., 1995.*

S.G‘., M.A.

SULTON VALAD (taxallusi; to‘liq ismi: Bahouddin Muhammad Valad (1226–1312, Ko‘niyo) – ulug‘ valiy Jaloliddin Rumiyning farzandi, mutasavvif shoir. Tasavvuf va she’riyatga muhabbat otasidan o‘tgan. Uning suhbatlarida qatnashib, ilohiyot ilmi va tasavvuf sirlarini egallagan fozil va ma’rifatli inson bo‘lib etishadi. Rumiy asos solgan mavlaviya tariqatini rivojlantirgan, uning tartib-qoidalarini ishlab chiqib takomillashtirgan, Ko‘niyo va boshqa shaharlarda mavlaviya jamoalarining tashkil etilishiga rahnamolik qilgan.

Valad taxallusi b-n forsiy va turkiyda ijod etgan, “u usmonli turk adabiyotining asoschisi hisoblanadi”. G‘azal va ruboiylari, “Valadnoma” dostoni etib kelgan. “Valadnoma”da tariqat qoidalari va tavhid g‘oyalari badiiy talqin qilingan. N. “N.M.”da bu haqda “bir masnaviysi bor Hakim Sanoyi “Hadiqa”si vaznida, base asror-u nukta anda darj qilibdur”, deb yozadi. S.V.ning orifona qarashlari aks etgan “Maorif” risolasi taniqli olim N.Komilov tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Абдураҳмон Жомий. Нафаҳот ул-унс// Осор. Дар 8 жилдлик, 8-жилд. – Душанбе, 1990; Доништмандлар туҳфаси. Рубоийлар (Э.Очилов тарж.). – Т., 2009; Султон Валад. Маориф // Комил инсон ҳақида тўрт рисола. – Т., 1997.*

E.O.

SULTON IBROHIM MIRZO (t.y.n. – 1459, Domg‘on) – temuriylardan. Alouddavla mirzoning o‘g‘li. Otasi toj-taxt u-n bo‘lgan kurashlarda mag‘lubiyatga uchrab, hokimiyatdan mahrum bo‘lgach, S.I.M. ko‘p qiyinchiliklarni boshidan

o‘tkazgan. Sulton Abulqosim Bobur hukmronligi (1452–1457) davrida qamoqda saqlangan. Abulqosim Bobur vafotidan so‘ng (1457, Mashhad) qamoqdan qochib, Murg‘ob bo‘yiga kelgan va taxt u-n kurash boshlagan. O‘z tarafdorlarini to‘plab, qo‘shin tuzishga muvaffaq bo‘lgan S.I.M. o‘sha yilning o‘zida Hirotga bostirib keladi. Abulqosim Bobur o‘limidan so‘ng a’yonlar tomonidan taxtga uning o‘g‘li Shoh Mahmud chiqarilgan edi. Yosh shahzoda S.I.M.ga qarshilik ko‘rsata olmay, poytaxt Hirotni tashlab chiqib ketadi va 1457-y. 31-mayda shahar S.I.M. qo‘liga o‘tadi. Shoh Mahmud tarafdorlari Mashhad shahrida yig‘iladilar. Ikki o‘rtada bo‘lgan jangda S.I.M. yengib chiqadi. U Mashhadda turgan paytida Hirotni Sulton Abusaid egallab oladi (18-iyul, 1457), lekin ko‘p o‘tmay lashkari b-n qaytib ketadi va S.I.M. yana o‘z o‘rnini egallaydi. Biroq S.I.M. Xurosonda o‘z hokimiyatini mustahkamlab ololmadi, bir tomondan, Samarqand hukmdori Abusaid mirzo, ikkinchi tomondan, qoraqo‘yunli turkmanlar Xurosonni bosib olishga intilayotgan edilar. 1457-y. 13-dekabrda u Jahonshoh turkman b-n bo‘lgan urushda yengiladi. O‘z navbatida Jahonshohni Sulton Abusaid mirzo mag‘lubiyatga uchratadi va shu tariqa Hirot uning qo‘liga o‘tadi. S.I.M. otasi Alouddavla va Marv hokimi Sulton Sanjar b-n birga Abusaidga qarshi jangga kirgan. Marv va Saraxs oralig‘ida bo‘lgan to‘qnashuvda ular yengiladilar. S.I.M. Domg‘on tomonga ketadi va o‘sha yerda kasallikka duchor bo‘lib, vafot etadi.

N. o‘zining “H.S.H.A.” asarida S.I.M.ni eslab o‘tgan. U o‘zining Sayyid Hasan b-n tanishuvi haqida ma’lumot berar ekan, bu voqea S.I.M. Hirot taxtiga o‘tirgan yili yuz berganini ta’kidlaydi. “Saltanat taxti Sulton Ibrohim mirzog‘a qaror tutgandakim, ta’rix sekkiz yuz oltmish erdi, bu faqir alar suhbatig‘a musharraf bo‘ldum”.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳолоти Саид Ҳасан Ардашер. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Абдураззоқ Самарқандий. Матлаъи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. 2-жилд. – Т., 2008.*

Q.E.

SULTON MAS’UD MIRZO – temuriy hukmdorlardan. 1494–1497-yy.da Hisorda hukmronlik qilgan. 1497-y. Xusravshohning isyoni tufayli taxtdan mahrum bo‘lib, Xurosonga kelgan. O‘sha vaqtda Hirotda bo‘lgan Xusravshohning ukasi Boqi Chag‘oniyoniy S.M.M.ni aldab, Hisorga olib ketgan va bu yerda Xusravshoh uning ko‘zlariga mil tortib, ko‘r qilgan. S.M.M. va uning bir nechta yaqin kishilari yana Xurosonga kelishga majbur bo‘lganlar. S.M.M. 1407-y.gacha Hirotda yashagan. Xuroson Shayboniyxon tomonidan zabt etilgan paytda o‘ldirilgan.

S.M.M. iste’dodli shoir bo‘lgan. U Shohiy taxallusi b-n o‘zbek tilida she’rlar yozgan va devon tuzgan. N. “M.N.”ning temuriy mirzolarga bag‘ishlangan yettinchi majlisida S.M.M. ijodiga to‘xtalib o‘tgan va iste’dodiga yuksak baho bergan. S.M.M.ning she’rlari, jumladan, tazkirada keltirilgan ushbu bayti ham N. fikrlarining chinligini ko‘rsatadi:

Yor borib jong‘a qo‘ydi dog‘i furqat, ey rafiq,
Ko‘ngluma kor etmasunmu dardi g‘urbat,
ey rafiq?

N. S.M.M.ning shaxsiyati baland bo‘lganini ta’kidlaydi. Shu o‘rinda ular ijodiy hamkorlik qilishganini ham qayd etib o‘tish zarur. N. “M.”idagi bir maktub shundan dalolat beradi. Maktub S.M.M.ga yo‘llangan va maktub boshidagi ruboiyda S.M.M. va otasining ismlariga ishorat bor:

Ul shoh tobug‘indakim, erur ma’dani jud,
Shohlar aro bo‘lmag‘ay bir andoq mavjud,
Ham volidi pokidek hisoli mahmud,
Ham axtari tole’dek ismi Mas’ud.

Maktub mazmunidan ma’lum bo‘lishicha, S.M.M. N.ga o‘z she’rlarini yuborgan. N. maktubi shu munosabat b-n yozilgan. N. ularni o‘qib, katta zavq olgani haqida yozadi va badiiyatini mubolag‘ali bir alfozda ta’riflaydi. S.M.M. N.ga o‘z she’rlarini yuborish b-n bir qatorda N. dan ham she’rlar yuborishni so‘ragan. Xatda N.

S.M.M.ning bu iltimosiga ko‘ra unga yuboriladigan she’rlarni tartibga solayotganini va ular tez orada S.M.M.ga yetkazilishini xabar qiladi.

Mazkur maktub N. va S.M.M. o‘rtasidagi ijodiy hamkorlikni ko‘rsatish b-n birga S.M.M. devoniga kirgan she’rlarning bir qismi N. nazaridan o‘tganligini ham ko‘rsatadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Муншаот. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. − Т., 2002.*

Q.E.

SULTON TO‘G‘RUL (laqabi; to‘liq ismi: Muhammad To‘g‘rulbek Rukniddin Abu Tolib (993–1063) − saljuqiylar saltanatining asoschisi va birinchi sultoni (1038–1063). Saljuqbekning nevarasi. XI asrning boshlarida birodari Chag‘ribek Dovud (990–1060) b-n birgalikda ko‘chmanchi o‘g‘uzlar − saljuqiylarning harbiy birlashmalariga boshchilik qilgan. 1035-y.dan birin-ketin Chorjo‘y, Marv, Niso, Tus va Nishopurni egallab, 1038-y. Nishopurda Sulton deb e’lon qilingan. Dandanakon jangida (1040) g‘aznaviylarni tor-mor qilgach, Xuroson hukmdoriga aylangan. Xalifalik poytaxti Bag‘dodni egallab (1058), o‘z nomiga xutba o‘qitgach, abbosiylar sulolasi xalifasi al-Qoim unga “Sharq va G‘arb sultoni” unvonini bergan. Avval Ray, keyin Isfahonni poytaxt qilgan. Ma’rifatli va donishmand hukmdor bo‘lib, she’r ham yozgan. Quyidagi ruboiylarni unga nisbat beradilar:

Keltir sovutimni – kiyay egnimga bu on,
O‘nglarman o‘z ishimni o‘zim begumon,
To qo‘lda qilich, yelkada qalqonim, ishon,
Bermasman Iroq mulkin agar ketsa-da jon.

Yoki:

Vasli mayiga kecha dilim qondirdi,
Hajri o‘tiga jonni bugun yondirdi.
Bir kuni visol-u bir kuni hijron ekan –
Umring, bu haqiqatga hayot ko‘ndirdi.

N. “M.L.” asarida Sulton To‘g‘rulbekni she’r aytgan hukmdorlar qatorida sanab o‘tadi: “... sort salotinidin ham Sulton To‘g‘rulbek va Shoh Shujo’dek oliyqadr podshohlar va rafe’martaba anjumansipohlar rangin abyot va shirin g‘azaliyot ayttilar va zamonlarida mashhur bo‘ldi va ro‘zgorlari avroqida mastur”.

Ad.: *Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Ражабов Қ. Тўғрулбек // ЎзМЭ. 9-жилд. – Т., 2005; IX–XVII аср туркмен эдебиятинин шахырлары. Справочник. – Ашгабад, 1967.*

S.G‘., E.O.

SULTON YA’QUBBEK – (Ya’qubbek) Oqqo‘yunlilar sulolasining oltinchi vakili. 1478–1490-yy.da Iroq va Ozarbayjonda hukmdorlik qilgan. Sulton Husayn Boyqaro boshqaruvidagi temuriylar davlati b-n yaxshi diplomatik munosabatlar o‘rnatgan. S.Y. N. shaxsi, ijodiga yuksak ehtirom b-n qaragan. Ular o‘zaro xat yozishib turishgan. N.ning “X.M.” kitobida S.Y. nomi tilga olingan. Asar syujetiga ko‘ra, N. kutubxonasidan joy olgan Abdurahmon Jomiyning devonini xattotga ko‘chirtiradi va devonni Jomiy bir ko‘zdan kechirishi u-n unga yetkazib beriladi. Jomiy o‘z devonini o‘qir ekan, xattot tomonidan yo‘l qo‘yilgan ko‘plab turli mazmundagi xatolarni ko‘rib, biroz og‘rinadi. Shunda N. ustoziga o‘zi tuzatib berishini iltimos qiladi. Jomiy mazkur devonini tahrirdan chiqaradi va N.ga qaytaradi. U devonni shaxsiy kutubxonasiga qo‘yib qo‘yadi. Shu vaqtda S.Y.dan N.ga maktub keladi. Maktubda u N.dan bir kitob so‘ragan bo‘ladi. N. S.Y. ga javob maktubini bitar ekan, mazkur devonni unga hadya sifatida jo‘natadi va N. bo‘lib o‘tgan voqeani unga yuborgan maktubida batafsil yozadi. S.Y.ni mazkur kitobning tuhfa tariqasida berilgani quvontiradi. N.ga yozgan javob xatida bu asar unga ikki hissa muborakligini, ya’ni

birinchidan, Jomiyga tegishliligini, ikkinchidan, muallifning o‘z qo‘li b-n qayta tahrir qilinganini yozib yuborgan.

N.ning S.Y. b-n do‘stona va diplomatik aloqalari bo‘lgan. Buyuk shoirning Astrobodda-gi hokimlik davrlarida ham bu munosabatlari davom etadi. Ikki tarixiy shaxsning birodarligi S.Y.ning Husayn Boyqaro davlati b-n munosabatlarini yaxshilanishiga xizmat qilgan. N. o‘ziga yaqin musohiblarini og‘ir vaziyatga tushganda S.Y. huzuriga yuborgan. M-n, Xoji Afzal Amir Majididdinning qahriga uchraganda, N. uni S.Y.ga jo‘natgan. S.Y. uni mulozim sifatida qabul qilgan. Bu haqda Mirxond “Ravzat us-safo”da qisqa ma’lumot yozgan: “Shuning uchun noiloj chora qidirdi, fikrlash va mulohazadan so‘ng Amir Alisherning ma’qullashi bilan, Iroq va Ozarbayjonga qarab jo‘nadi, manzil va bekatlarni bosib o‘tib, Sulton Yaqub mulozamatiga musharraf bo‘ldi. Uning in’om-u ehsonlariga ko‘mildi, u yo‘l ko‘rsatib haj karvonini hozirlab berdi. Shu tufayli haj qilish hamda xalqlar sarasi Muhammad payg‘ambarning nurga to‘la qabrini ziyorat qilish saodatiga erishdi. Murod va maqsadi hosil bo‘lib, Iroq va Ozarbayjonga qaytdi”.

***Ad.**: Алишер Навоий. Хамсат ул-мутаҳаййирин. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Навоий замондошлари хотирасида (Тузувчи акад. Б.Аҳмедов). – Т., 1986.*

B.R.

SULTON HUSAYN (XV asr) – shoir. N. ning akasi Shayx Bahlulbekning o‘g‘li. Taxallusi “Xatmiy” (muhr bosish, so‘z bilan jilovlash ma’nolarini anglatadi). N. “M.N.”da S.H. haqida “faqirvash va nomurodvesha yigitdur. Tab’i ham xoli az salomat emas”, – deb yozadi. Bundan ko‘rinadiki, S.H. kamtar va nochorgina, she’riy qobiliyati durustgina bo‘lgan. S.H. N.ga farzand o‘rnida bo‘lgan. N. vafot etganda, Sulton Husayn Boyqaro S.H.ga va otasi Shayx Bahlulbekka (N. ning akasi) tasalli bergan. “Makorim ul-axloq”da bu haqda shunday deyiladi: “Sultoni Sohibqiron ... oliynasab amirning ulug‘ birodari amir Nizomuddin Shayx Bahlul va ul janobning o‘g‘il xoni amir Kamoluddin Sulton Husaynga va oliy hazratning boshqa yaqinlariga mehribonlik ko‘rsatdi”. N. vafotidan qirq kun o‘tgach, ma’raka o‘tkazilgan va unga N.ning jiyani S.H. va Xoja Jaloliddin Muhammad boshchilik qilgan.

S.H. amakisining vafotiga ta’rix-qit’a yozgan. Unda ta’rix moddasi “xayrun kamoluhu” bo‘lib, 906 hijriy (melodiy 1501) yil chiqadi.

***Ad.**: Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

S.G‘.

SULTONALI MASHHADIY – (1432–1520, Mashhad) Mirali Tabriziy izdoshlaridan. Otasi Muhammad Mashhad ziyolilaridan bo‘lgan. Xattotlik san’atida maktab yaratgan, Hirot xattotlik maktabining ustozi, nasta’liq xatining mislsiz ustasi, N.ning shaxsiy kotiblaridan biri.

U “Qiblat ul-kuttab” , “Zubdatul-kuttab”, “Sulton ul-xattotiyn”, “Sulton ul-huffoziyn” va “Kotib us-sultoni” laqablari bilan mashhur bo‘lgan. U haqda “Ravzat us-safo”da “... ba vajohati surat va mahosini siyrat mavsuf va dar xati nasx-ta’liq on miqdor mahorat hosil karda xutut ustodoni mutaqaddimiyn va mutaaxxiriynro mansux soxt...” (...ko‘rinishi vajohatli va siyrati yaxshi, nasta’liq xatiniyozishda oldingi va keyingi xattotlarni lol qoldirgan) deyilgan.

S.M. 20 yoshigacha Mashhad madrasalarida ta’lim oladi. U Abusaid mirzo taklifi b-n (845 – 1442) Azhar Tabriziy, kasalligi sababli, oxirigacha ko‘chirolmagan Nizomiy “Xamsa”sini ko‘chiradi. Abusaid Mirzo uni saroy kotibi lavozimida tayinlaydi. O‘sha “Xamsa” hozirgi kunda Kobul Milliy kutubxonasida saqlanadi.

Hokimiyat Husayn Boyqaro qo‘liga (1469) o‘tgach, S.M. N. va Abdurahmon Jomiylar b-n hamkorlikda ishlaydi. U Hirot xattotlariga rahbarlik qilib, musavvir, muzahhib, lavvoh va sahhoflar b-n birgalikda kitobat ishini nafis badiiy san’at darajasiga ko‘taradi. S.M. Hirot xattotlik

maktabiga rahbarlik qilish b-n birga, butun faoliyati davomida (umrining 40 yili) Husayn Mirzo maktublarini riqo’ xatida, N. va boshqa shoir-u olimlarning asarlarini nasx va nasta’liqda ko‘chirish b-n tinimsiz mashg‘ul bo‘ladi. U ko‘chirgan ko‘p nodir qo‘lyozmalar Husayn Boyqaro va N. lar tomonidan boshqa o‘lkalarga tabarruk tuhfalar sifatida yuborilgan.

S.M. “Sirot us-sutur”, “Sirot ul-xat”, “Midod ul-xutut” nomli asarlar muallifi. U qobiliyatli shoir, turli tazkiralarda uning she’rlaridan namunalar (fard, qit’a, ruboiy va boshqalar) uchrab turadi she’rlari mazmun va mohiyati jihatidan xat va xattotlik san’ati b-n bog‘liq. S.M.ning (1514) fors tilida nasta’liq xat haqida, “Ey qalam, tez kun zaboni bayon, Bahri hamdi Xudoyi har du jahon...” bayti b-n bashlangan “Sirot us-sutur” nomli she’riy risolasi e’tiborga molik. Risolaning asl nusxasi Saltikov-Shedrin nomidagi Sankt-Peterburg Davlat xalq kutubxonasida (Dorn 464) saqlanmoqda. Risolada S.M. xat san’atining nazariy va amaliy qoidalarini ta’riflagan.

S.M. Husayn Boyqaro vafotidan keyin shayboniylar hukmronligi davrida ham bir oz vaqt Hirotda yashab, keyin tug‘ilgan vatani Mashhadga ketadi va o‘sha yerda xattotlik faoliyatini davom ettirib, 1520-y.da Mashhadda vafot etadi. U hazrati Imom Rizo ravzasining oyoq tomonida dafn etilgan.

XV asr Hirot xattotlari orasida N. asarlarini eng ko‘p va xo‘b kitobat qilgan S.M.dir. U ko‘chirgan 12 dan ziyod qo‘lyozmasi MDH va xorijiy davlatlarda saqlanmoqda.

S.M. 1467-y.da N.ning “Ilk devon”ini ko‘chiradi. Bu qo‘lyozma Sankt-Peterburg Davlat xalq kutubxonasining Sharq bo‘limida Dorn 564 raqami ostida saqlanadi. Varaqlar soni 143, yana kutubxonadagi Dorn 560 raqamli “X.” qo‘lyozmasini ham S.M. ko‘chirgan. Qo‘lyozma 898/1492–93-y.da kitobat qilingan. Hajmi 325 varaq. Uchinchi qo‘lyozma “M.N.”dir (Dorn 553). Hajmi 38 varaq, kitobat sanasi qo‘yilmagan.

O‘zR FAShIda S.M ko‘chirgan N. asarlarining to‘rt qo‘lyozmasi mavjud. Birinchi qo‘lyozma – N.ning o‘zi tuzgan ikkinchi devoni “N.N.” bo‘lib, Hirot shahrida 880-85/1475– 80-yy. orasida ko‘chirilgan (inv. № 1995). Hajmi 204 varaq. Qolgan uch qo‘lyozma terma devonlar tarzida, varaqlari hirotiy ipak qog‘ozda. S.M. ko‘chirgan N. asarlari qo‘lyozmalaridan qolganlari xorijiy fondlarda saqlanmoqda. N. S.M. haqida shunday yozadi: “...mashhadlig‘dur. Bu kun Xurosonda va olamning aksar bilodida “nasta’liq” xatida qiblat ul-kuttobdur, kitobat mulkining qalamravi va qalama anga musallamdur. Oncha hamida axloq va guzida atvor bila orosta va pirostadurkim, sharhida qalam tili ojiz va husni xulqda naziri yo‘qtur va tab’i dag‘i xub voqe’ bo‘lubtur...

Gul dar bahor az on ruxi gulgun namunayest,
Chun ashki man ki az dili purxun namunayest.

Tarj.: Ko‘z yoshlarim qonli yuragimdan namuna bo‘lgandek, bahor chog‘idagi gul, Ul gulrang yuzdan namunadir.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ғиёсиддин Муҳаммад Хондамир. Равзат ус-сафо. 7-жилд; Али Акбар Деҳхудо. Луғатнома. – Теҳрон 1998; 10-жилд; Мирзо Муҳаммадшариф. Садр-Зиё. Тазкираи хаттотон. ЎзШҚМ. Қўлёзма. 1304,2193; Муродов А. Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан. – Т., 1971; МунировҚ., Носиров А. Алишер Навоий қўлёзма асарлари каталоги. – Т., 1970; М.Ҳакимов. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. – Т., 1991.*

E.O., Muh.A.

SULTONALI MIRZO (v. 1500, Samarqand) − shahzoda. Sulton Abusaid Mirzoning nevarasi, Sulton Mahmud Mirzoning uchinchi o‘g‘li. Tarxonlarning qo‘llab-quvvatlashi b-n akasi Boysung‘ur Mirzoni yengib, uning o‘rniga 1499-y. taxtga o‘tiradi. Onasi Zuhra begim Abu Yusuf arg‘unning maslahati b-n Shayboniyxonga yashirincha maktub yozib, agar o‘zi-

ga uylansa, unga Samarqandni berishini, u esa keyin o‘z navbatida S.M.ga otasining viloyatini berishini ma’lum qiladi. Shayboniyxon rozi bo‘lib, jangsiz Samarqandni qo‘lga kiritgach, shahzodani qatl ettiradi, Zuhra begimni esa nazarga ilmaydi.

N. “M.N.”ning Temur va temuriy shahzodalarga bag‘ishlangan yettinchi majlisida “tab’ini nazmga moyil deydilar va ushbu matla’ni unga nisbat beradilar”, deb quyidagi baytini keltiradi:

Vaslida mag‘rur bo‘ldung, hajrida zor,
ey ko‘ngul,
Ne aning birla, ne onsiz toqating bor, ey ko‘ngul.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 2002.*

E.O.

SULUK – yo‘l, yo‘lga kirish, Haq yo‘liga boshlash. Soliklar nazdida, Alloh visoliga loyiq bo‘lish u-n axloqni poklab, go‘zallashtirmoqdir. Buning u-n nafsni mavqe va martaba hirsidan, kin va kibr, riyo va hasad, yolg‘on va g‘iybat, zulm va jaholatdan tozalab, bularning butunlay ziddi bo‘lgan ilm, hilm, hayo, rizo, tavoze, tavakkul, jud singari sifat va xislatlarni kamolga yetkazmoq lozim.

Tasavvuf arboblaridan ayrimlarining ko‘rsatmasi bo‘yicha, suluk – jahldan go‘zal axloqqa o‘zining vujudidan Haqning vujudiga (borlig‘iga) yo‘lchilikdir. Sulukka qarashlar har xil va suluk ahli orasida har turli ixtiloflar ham bo‘lganligi bois N.:

Chun suluk ichra ko‘p erdi ixtilof,
Ko‘pragi dard erdi, lekin ozi sof, –

deb yozgan edi. Pir tanlashda ham, albatta, uning “suluk-u atvori”ni bilish zarur:

Marham tilasang sidq ila guftoriga boq,
Pir istar esang suluk-u atvorig‘a boq.

Chunki:

Qadah gar bermasang, ey dayr piri,
ne osig‘ ranjim,
Suluk etmas asar, gar piridin yetmas
hidoyat xo‘b.

Ad.: *Абдураззоқ Кошоний. Тасаввуф луғати. – Истанбул, 2004. – Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. – Т., 1984.*

I.H.

SULTONALI SABZ MASHHADIY / HIRAVIY (t.y.v.e.y.n.) – xattot. Ko‘zi ko‘k bo‘lgani u-n Sabz laqabini olgan. Nasta’liq xatining ustozlaridan bo‘lgan. Xondamir “Xulosat ul-axbor” asarida uni “Nasta’liq b-n yozuvchilarning mashhurlaridan, husnixatda ularning yetakchisidir”, – deb ta’riflaydi. U N. kutubxonasida kitobat b-n mashg‘ul bo‘lgan. Fikriy Saljuqiyning “Xushnavislar va hunarmandlar” tazkirasida keltirilishicha, u ko‘chirgan Sa’diyning “Bo‘ston” pandnomasi Tehronda, Nizomiy “Xamsa”si Kobulda (E’timodiyning shaxsiy kutubxonasida) saqlanadi.

Ad.: *Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 3. – Д., 2004.*

E.O.

SULTONALI QOINIY (t.y.n. – v. 1508 – Hirot.) – xattot. Azhar Tabriziyning shogirdi. Dastlab Tabrizda yashab, Sulton Ya’qub Oqquyunli saroyida kotib bo‘lib ishlagan. Ya’qub vafotidan so‘ng Rustam Oqquyunli saroyida xizmat qilgan. Bir muddat Hijozga borib, u yerdan Hirotga safar qiladi va Husayn Boyqaro saroyiga yo‘l topib, o‘zi ko‘chirgan kitoblarga Sultoniy deb imzo chekadi. Xondamirning “Xulosat ul-axbor” asarida ma’lumot berishicha, u N. tarbiyati va inoyati ostida ishlagan. Ko‘proq Abdurahmon Jomiy asarlarini kitobat qilgan. Nasta’liq xatini yozishda mohir bo‘lgan. U Azhar Tabriziy

uslubida yozar edi. Yozgan she'rlarini ham o'zi ko'chirgan.

"M.N."da keltirilishicha, darvesh yigit bo'lib, Abdurahmon Jomiy b-n yaqin bo'lgan. Bir necha yil Makkada ham yashagan. Serqirra iste'dod sohibi bo'lib, she'r ham yozgan. Naql qilishlaricha, bir gal unga bir devonni kitobat qilishni buyurilganda mening har bir ko'chiradigan baytim bir tanga turadi, deb mubolag'a qilgan ekan. N. S.Q. ni quvvatlab, uning xizmati bunga arziydi, hatto, bundan ham ortiq, deydi va ijodidan namuna sifatida bir matla'sini keltiradi:

Zi ishqat otash dar zada nomus-u nang-u nomro,
Doda ba bod nesti-yu hastiyi xos-u omro.

Tarj.: Ey sening ishqing oru nomus-u obro'-ni o'tga urdi, katta-yu kichikning bor-u yo'g'ini elga sovurdi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 3. – Душанбе, 2004.*

E.O.

SULTON MUHAMMAD NUR (1470–1533) – xattot. Husayn Boyqaro saroyida kotiblik qilgan. U kitobatda mohir bo'lib, zamondoshlarining aytishicha, xafiy yozuvini hech kim undan yaxshi yozolmagan. Sultonali Mashhadiyning shogirdlaridan. Mirzo Haydarning aytishicha, u tez yozsa-da, so'zlari ba'zan bo'shtobroq chiqardi. Turli rangda kitobat qilish (rangnavislik) va tahrirda ham tengsiz edi. Ayni jihatdan ko'pincha uni "Azhari Soniy" deganlar. U ko'chirgan Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"si, Sa'diy Sheroziy va Abdurahmon Jomiyning "Saylangan she'rlar"i ("Muntaxabi ash'or"), Hofiz Sheroziy devoni, Sa'diyning "Bo'ston" va "Guliston" pandnomalari bizgacha yetib kelgan – ular Eron davlat kutubxonasi va Milliy sho'ro majlisi kutubxonasida saqlanadi. She'rlar ham yozgan bo'lib, ulardan namunalar tazkira va bayozlarda saqlanib qolgan.

S.M.N. N.ning terma devonlaridan birini nafis nasta'liq xati b-n ko'chirgan: Sankt-Peterburg davlat Xalq kutubxonasi Sharq bo'limi, Dorn 563. Hajmi 90 varaq. Qo'lyozmaning charmdan ishlangan muqovasiga oltin suvi b-n o'yma naqshlar tushirilgan.

Ad.: *Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 3. – Душанбе, 2004.*

E.O., Muh.A.

SULTON MUHAMMAD TABRIZIY – (1470–1555, Tabriz) Tabriz musavvirlar maktabi asoschilaridan, Oqo Miraki Naqqosh shogirdi, Tabriz kutubxonasida sahhof, xattot va musavvir bo'lib ishlagan. S.M.T. Hirotga kelib temuriylar saroyining mohir naqqoshi sifatida xizmat qiladi, lekin tabiatan mutakabbir, o'ta qobiliyatli hunarmand bo'lgan. S.M.T. N. u-n juda katta soat yasaydi, soat tepasida nog'oracha o'rnatilgan bo'lib, har soatda haykalcha ko'rinish berib, nog'orani cho'pchalar b-n tez-tez uradi-da va yana soatning orqasiga g'oib bo'ladi. Buni ko'rganlar (Navoiydan boshqa) naqqoshning hunariga tasannolar aytishadi. U Firdavsiy "Shohnoma"si, Hofiz Sheroziy devoni, Nizomiy "Xamsa"si va N. devonlariga minatyuralar chizgan. S.M.T. zargarlik va chinnisozlikda ham mohir bo'lgan. U Sulton Husayn hukmronligidan so'ng Ismoil Safaviy xizmatida va undan o'g'li Tahmosib saroyida naqqoshi bo'lib xizmat qiladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Забиҳулло Сафо. Тарихи адабиёти Эрон. 3-жилд. – Душанбе, 1987.*

Muh.A.

SULTON MUHAMMAD XANDON (t.y.n. – v. 915–1510) – Hirot xattotlik maktabining namoyandalaridan. Xondamir N. kutubxonasida ishlagan xattotlarni sanab o'tganda, S.M.X.ni

“nasta’liq bilan xat yozishda katta qobiliyatga ega, nayni ham yaxshi chaladi, she’r va muammoni ham aytar” deb eslab o‘tadi. Husnixatda, xususan, nasxi sharifni yozishda mohir bo‘lgan. Sulton Muhammad Xandon yoshligidan N. xizmatida edi. Shuning u-n N.ning xos odamlaridan bo‘lgan, ochiq yuzlik (xushchaqchaq) bo‘lganligi u-n unga “Xandon” laqabi berilgan. Uning ko‘chirgan qo‘lyozmalaridan Jomiyning ikki nusxa “Yusuf va Zulayxo” va bir nusxa “Sabhat ul-abror” (1525), Sa’diy Sheroziyning “Bo‘ston”i (1515), bir nusxa Hofiz Sheroziy devoni va bir nusxa Xusrav Dehlaviyning “Qironi assa’dayn” asari (1516) Britaniya muzeyida (London) saqlanmoqda. S.M.X. 1551-y.da vafot etadi. “Voqiya” qabristonida N.ning oyoq tarafida dafn etilgan. S.M.X.ning Hirotda 935/1528-y. da ko‘chirilgan N. terma devoni bizgacha yetib kelgan. Sankt-Peterburg davlat xalq kutubxonasi Sharq bo‘limi, TNS 57. Hajmi 192 varaq, kotib “Sulton Muhammad Xandon” deb imzo qo‘ygan. Qo‘lyozmaga Hirot musavvirlaridan biri 7 ta rasm ishlagan: 1a, 11b, 12a, 53a, 90a, 123b, 146 b. S.M.X. ko‘chirgan (14 qo‘lyozma) boshqa bir necha qo‘lyozmalar ham saqlanib qolgan.

Ad.: *Муҳаммад Шариф Садри Зиё. Тазкират ал-хаттотин. ШҚМ-1, № 1304/ III.; Хондамир. Равзат ус-сафо. 7-дафтар. – Теҳрон 1998; Муродов А. Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан. – Т., 1971.*

Muh.A.

SUMANSO – “F.Sh.” dostonida tasvirlangan Mehinbonu saroyidagi o‘n kanizakdan biri. Ularning: “Bari ham sarvqomat, ham dilorom”. Buning ustiga, ularning har biri bir sohada tengsiz: biri she’r, biri musiqa, biri tarix, biri hisob, biri mantiq (logika), biri nujum (astronomiya), biri balog‘at (adabiyot nazariyasi), biri hikmat (falsafa), biri haqoyiq (mavjudot haqiqatlari haqidagi fan), biri muammo yechishda o‘z davrining eng oldi bo‘lgan: bu fanlarning yuzlab ustasidan bularning bittasi mohirroq edi:

Bu fanlarda bular bir-birdin ahsan,
Yuz fanliq aro har qaysi yakfan.

Nomlar va hunarlar ketma-ketligi bo‘yicha S. “Balog‘atda... aytib daqoyiq” edi.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011.*

M.M.

SURAYYO – Q.: PARVIN.

“SURATXONAYI CHIN” – Chin (Xitoy) suratxonasi. Bu ibora N. asarlarida “Nigorxonayi Chin” shaklida ham uchraydi (“X.M.”, “M.L.”). N.ning, xususan, she’riy asarlarida badiiy rassomchilik, naqqoshlik masalalariga, rassomlarning obrazlarini chizishga ham muhim o‘rin berilgan. Buni biz N. dostonlaridagi Farhod, Shopur, Moniy singari obrazlarda yaqqol ko‘rishimiz mumkin. “F.Sh.” dostonining Shirin istagiga ko‘ra tog‘dan ariq qazib, suv keltirish bobida bu g‘oya yanada yaqqol namoyon bo‘lgan. Farhod ariq qazib, tog‘dan suv keltirish b-n cheklanmay, tog‘ etagida ariq bo‘yiga Shirin dam olishi u-n hovuz qazib, shu hovuz yonidagi yaxlit toshni o‘yib, qasr ham yaratadi. Qasr ichidagi devorlarga esa Shopur ko‘magida Shirinning taxtda o‘tirgandagi o‘zi b-n birga turgandagi holatlarining unga xizmat qilayotgan kishilarning, uning doirasidagi odamlarning ham minglarcha badiiy shaklini chizadi va bu xonalarni Xitoydagi rasm galeriyalariga taqqoslab, “S.Ch.” deb ta’riflaydi:

Bu yang‘lig‘ yo‘ndi qasri olam aro
Bori ajzo anga bir pora xoro.

Qilib ayvonida yuz tarh tahrir,
Mavozi’ tarh qildi bori tasvir.

Chekib ul sarv gulrux taxt-u johin,
Bu taxt uzra hamul husn ahli shohin.

Parilar qulluq aylab xizmatida,
Parivashlar qo‘yub yuz hazratida...

Chekib yuz ming bu yanglig‘ turfa timsol,
O‘zin ul sho‘x o‘trusida behol.

Qayu mavzudakim, ul mohpora
Munung shakli qilib behud nazoro…

Bu ishlarda bo‘lub Shopur yori,
Etib har birga kilki chirakori.

Bu yanglig‘ qasr topib zeb-u oyin,
Latofat ichra suratxonai Chin.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик. 6-8-жилдлар. – Т., 2011.*

Ab.H.

SUS (q.) – N. “T.A.H.” asarida tilga olgan shahar nomi, tarixiy geografik atama. N. kitobda bu shaharni Shis (a.s.) Bobilda bino qilingani xususida ma’lumot yozgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

B.R.

SUTURLOB (usturlab) – Sharq astronom olimlari kashf etgan asbob. Quyosh va yulduzlar yuksakligini o‘lchash va harakatini kuzatishda qo‘llanilgan. “S.I.” dostonida Chin hoqoni tuhfasi “Oyinayi Chin” tilsimiga qoyil qolgan Iskandar o‘z ixtiyoridagi donishmand-hakimlarga “andin ortiq tilsim” yaratish vazifasini qo‘yadi. Har biri ikki yuz fozil-hakimlardan iborat bo‘lgan ikki ilmiy guruh tashkil etilib, ularning biriga Aflotun, Suqrot, Hurmus va Balinos, ikkinchisiga esa, Arastu, Buqrot va Arshimidus kabi mashhur donishmandlar rahbarlik qiladi. Iskandarning bevosita ishtiroki va homiyligida boshlangan izlanish ikki ajoyib ixtiro – quyosh va yulduzlar yuksakligi va holatini o‘rganuvchi Suturlob va “Oyinayi Iskandar”ni yaratish b-n yakunlanadi. “Ruh va mis” qotishmalaridan yasalgan Suturlob “aflok ishi” sirlarini, “charhning to‘qqiz qismi” holatini o‘rganish qudratiga ega edi. N. Suturlob (shuningdek, ko‘zgu) ixtirosini Iskandar faoliyatining ya’jujlar yo‘liga qo‘yilgan to‘siq (devor) darajasidagi eng muhim mevalari qatoriga kiritadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

M.A., A.A.

“SUXAN” – Mavlono Lutfiyning “Suxan” radifli saj’ qasidasi. Abdurahmon Jomiyga bag‘ishlab yozgan. Mazkur qasida Hirot adabiy muhitida juda mashhur bo‘lib ketgan. Bu haqda N. “N.M.”dan o‘rin olgan “Mavlono Lutfiy zikri”da alohida mehr va zavq b-n bayon qilgan: “To‘qson yoshidin tajovuz qilg‘onda, Hazrati Maxdum otig‘a radifi “Suxan” saj’ qasidaye aytib erdiki, zamon xushgo‘ylari barcha xo‘bluqqa musallam tuttilar”. Abdurahmon Jomiy sharafiga bunday marg‘ub va mahbub qasida baxshida qilishi, uning ustoz sifatidagi ajab holati, keng fe’lligidir. Abdurahmon Jomiy ham bu himmatini qadrlab, Lutfiyning istagiga binoan o‘z xirqasini sovg‘a qilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик. 10-жилд. – Т., 2011.*

B.R.

SUYUNOV MAVLONBERDI (1957, Tojikiston Respublikasi, G‘onchi tumani) – n.shunos, f.f.n. (2004), dotsent (2005). Xo‘jand davlat pedagogika instituti (hozirgi Xo‘jand davlat universiteti)ni tugatgan (1981). Xo‘jand davlat universitetida laborant (1994-96), o‘qituvchi (1996–97), katta o‘qituvchi (1997–2004) vazifalarida ishlagan. 2005-y.dan O‘zbek tili, adabiyoti va uning ta’limi metodikasi kafedrasi dotsenti. 1 ta monografiya, 3 ta o‘quv qo‘llanmasi va 50 dan ortiq ilmiy maqolalar muallifi.

S.M.ning tadqiqotlari o‘zbek-tojik adabiy aloqalari, N. ijodidagi tojik shoirlari an’analari va badiiy mahorat masalalari tahliliga bag‘ish-

langan. Nomzodlik ilmiy ishi ham “Hofiz Sheroziy va Alisher Navoiy (an’ana, yangilik va mahorat masalalari)” deb nomlanadi. Unda N.ning fors-tojik she’riyati va Hofiz ijodiga munosabati; Hofiz g‘azallariga tatabbu’lari va ularning badiiyati; Hofiz va N. – Foniy she’riyatidagi rind timsoli tahlilga tortilgan. S.ning ilmiy ishlari N. ijodini tojik adabiyoti b-n bog‘lab o‘rganish jihatidan ahamiyatlidir.

Ad.: *Ҳофиз Шерозий ва Алишер Навоий. – Хўжанд, 2004; Ўзбек адабиёти тарихи. – Хўжанд, 2006; Шарқ адабиёти тарихи. – Хўжанд, 2007; Ҳамкор халқлар адабиёти. – Хўжанд, 2008.*

H.A.

SUQROT – qadimgi yunon mashhur faylasufi Sokrat (mil. avv. 470–399-yy.) ning Sharqdagi nomlanishi. Sharq ilmiy, tarixiy va badiiy adabiyoti, xalq og‘zaki ijodi namunalarida katta donishmandlik va chuqur aql-idrok, shuningdek, yorug‘lik, nur, ziyo ramzi sifatida talqin qilinadi. N.ning “F.Sh.”, “S.I.” dostonlarida, “T.A.H.” asarida alohida e’tibor qaratilgan obraz. Xususan, “S.I.”da S. faol ijobiy qahramonlardan – Iskandar xizmatidagi besh yuz hakimga boshchilik qilib hukmronga “kecha-yu kunduz” hamroh bo‘lgan o‘n donishmand-maslahatchilardan biri sifatida tasvirlangan.

Dostonda N. unga, jumladan, quyidagicha ta’rif beradi:

... Ul hikmat ahlining ustodidur,
Zamiri xirad hikmat obodidur.

S. Aflotun b-n hamkorlikda Iskandar topshirig‘iga ko‘ra ikki yuz hakimga rahbarlik qilib, usturlobni ixtiro etadi, hukmronning suv sathi va suv osti safari oldidan unga dengiz va muhitlar haqida, ularning yer yuzi bo‘ylab joylashishi to‘g‘risida ma’lumotlar beradi. Suv safari vaqtida yo‘lboshchilik qiladi, ilmiy kuzatuvlar, o‘lchash va tekshirish ishlariga rahbarlikni amalga oshiradi. S. Iskandar onasiga ta’ziya bildirib, pand-u nasihat qilgan yetti donishmandning biri, dostonning yakunlovchi bobida esa S.ning Arastu, Aflotunlar qatorida Iskandar u-n adolatli va rivoyatparvar bo‘lishni tavsiya etuvchi “xiradnoma” yozgani aytiladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

A.A.

SUHAYLO (ar. – Suhayl nomli yorug‘ yulduz nomidan) – N.ning “F.Sh.” dostonidagi hakim va donishmand. Suqrotning shogirdi. El ichra donishmand sifatida mashhur, yoshi 500 dan oshib ketgan S. ham ustozi Suqrotdek g‘orda yashaydi.

Erun Yunonda Suqroti zamon ul,
Tutub Suqrotdek g‘ori nihon ul.

Jomosp S.ga Farhodning belgilarini aytib, unga Iskandar oyinasi tilsimini ochish yo‘lida madadkorlik qilishini vasiyat qilib ketgan bo‘ladi. Shu alomatlar bo‘yicha u Farhodni bir qarashda taniydi. Necha yuz yillardan buyon uni kutayotganini aytadi. Unga Jomosp mujdasini yetkazib, oldida turgan 2 to‘siqdan ogoh etadi – biri ajdar, ikkinchisi – Ahraman. Ajdardan himoya qiladigan o‘zi otashgohlardan yurib yiqqan Samandar yog‘ini tuhfa qiladi. Ahramanni engsang, qo‘lingga uning sehrli uzugi kiradi, bo‘ynida osilgan kumush lavh orqali esa tilsimni ochib, Jamshid jomiga ega bo‘lasan, jom tegrasidagi yozuvlardan esa Suqrot makon tutgan g‘orning manzilini bilib olasan degancha, uni yo‘lga da’vat etib duo qiladi-yu, o‘zi jon beradi. Hakimni chindan kelgan Farhod qavmi va yunonlik hikmat ahli ko‘z yoshlari b-n yuvib, shu g‘orda dafn etadilar. Tasavvufiy talqinga ko‘ra, Farhodga qabul nazari Jomospdan o‘tgan. U Farhodning tug‘ilishidan xabar berib, uning tarbiyasi b-n shug‘ullanishni S.ga vasiyat qiladi. S. esa Farhodning tariqatdagi birinchi piri. Chunki ilk ta’limni Farhod aynan

undan oladi. U Farhodga nasihatlar qilib, uni ajdarho, Ahraman (dev), sher va temir paykardan ogoh etadi. Bu timsollar ramziy bo‘lib, ajdarho – nafsni, dev – saltanatni, sher – qahr-u g‘azabni, temir paykar – riyo-yolg‘onni, samandar yog‘i – ishqni tamsil etadi. Yana Suqrot huzuriga olib boradigan yo‘lni ko‘rsatib, ajdarhoni engish u-n samandar yog‘ini tuhfa qiladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Комилов Н. Тасаввуф. – Т., 1996.*

E.O.

SUHO – Katta ayiq, Katta Yetti Og‘ayni, Katta Yetti qaroqchi (xalq tilida Cho‘mich yulduzi) yoki Hulkar to‘plamidagi yulduzlarning eng xirasi va maydasi. N. atamasini suhovash, suhokirdor singari o‘zakdoshlari b-n poetik ifoda, ta’limiy va o‘git berish maqsadlarda bir necha o‘rinda qo‘llagan. M-n, “F.Sh.” dostonida shoir Farhodning merganligini ta’riflab, S.ni ham, ya’ni shunday xira Yulduzni ham nishonga ola olar edi, deydi:

Qaro tun gar nishon aylab Suhoni,
Falakcha novakig‘a ul nishoni.

Zero, S.ning xiraligi xalq orasida qadimdan ko‘zning ko‘rish quvvatini o‘lchash mezoni bo‘lgan. S.ni ko‘ra oladigan ko‘z eng o‘tkir ko‘z sanalgan. Falakdagi jismlar haqida kitobxonda yorqin tasavvur uyg‘ota olgan mutafakkir shoir asar bosh qahramonining kasb egallashda erishgan darajasini ham S. atamasini qo‘llash b-n ko‘rsatib beradi.

“S.S.”da esa boshqa kayfiyatga duch kelinadi. N. asar qahramoni shoh Bahromning sargushtlarini yakunlab, uning qilmishlaridan chiqarilishi lozim bo‘lgan nasihatlarni bita turib, 30-bobda yana do‘sti va maslakdoshi Sulton Husaynni vasf etishda S.dan foydalanadi:

Qadri qoshida gunbazi mino,
Charxi min qoshida misli suho.

Husayn Boyqaroning fikri quyoshdan afzal, quyosh esa (uning) oldida zarradan ham kam. Kuch-qudrati oldida ko‘k gumbazi S. yulduzi (Hulkar to‘plamidagi eng xira yulduz)chadir.

Satrlardagi mubolag‘ali tasvirlar shohga ilhom beradi ham tarixiy shaxs portetini yaratishda ko‘maklashishi shubhasiz. Shuningdek, “S.I.” dostonida ham Iskandar va Chin xoqoni qo‘shinlari sulh u-n qarama-qarshi tomonga saf tortgach, qo‘shinlardagi kechqurungi harakat tasvirida S. ning oldingi baytda urg‘u berilgan xususiyatiga ishora qiladi:

Yazaklar payopay ravona bo‘lub,
Suho o‘qlariga nishona bo‘lub.

Kecha qorovullari ham ketma-ket ravona bo‘lib, eng xira Hulkar yulduzlaridek ko‘z ilg‘amas harakat qila boshladilar. Dostondagi “Darhaqiqat, Biz odam bolasini mukarram qilib yaratdik” oyatini tafsirlovchi baytda N. “Alloh taolo bir qatraga dengizni yashirganidek, eng kichik yulduz bo‘lmish S.ning ichiga charxi a’loni nihon qilganidek, odam vajudiga g‘oyat ajib xazinalarni yashirdi”, – deya betakror tashbeh namunasini yaratadi:

Ki, bir qatrada qildi daryo nihon,
Suho zimnida charxi a’lo nihon.

“L.T.”dagi S. b-n aloqador misralar ham yuqoridagi mazmunga hamohang yangraydi:

Charxni aylar Suho anda nigun,
Pashsha aylar anda anqoni zabun.

N. “M.N.” tazkirasida “Suhoiy” taxallusini tanlagan Abdulvahhob ismli qalamkashga fiqra bag‘ishlagan. Darhaqiqat, S. b-n bog‘liq fikrlar N. asarlari hamisha mushohadaga chorlovchi, inson tafakkur olamini yanada kengaytiruvchi ko‘p qirrali ijod maydoni ekaniga dalildir.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Iskender Pala. Ansiklopedik divân şiiri sözlüğü. – Istanbul, 2004; Камта Айиқ. ЎзМЭ. 7-жилд. – Т., 2002.*

S.O‘.

SO‘Z – N. asarlarida “S.” juda ko‘p ma’nolarda ishlatilgan. Tilning nuktadon bilimdoni sifatida u haqda muhim falsafiy-ilmiy va adabiy-badiiy fikr va xulosalarni ilgari suradi. U “S.” atamasi orqali tilni ham, nutqni ham, va’z-u nasihatni ham, falsafiy fikrlar-u badiiy adabiyotni ham ifoda etadi, ko‘p holatda ular bir-biridan ajratib ko‘rsatilmaydi, hatto badiiy vosita bo‘lgan “S.” b-n umuman adabiyot, adabiy asar haqidagi fikrlari ham aralashib keladi.

N. S.ning nafosatini, qadrini, nutq odobini, muloqot o‘rnini, uning barcha baland-pastini bilishni insonlardan talab qilgan va jamiyatga anglatish borasida ham amaliy, ham nazariy fikrlarni ilgari surgan. U “F.Sh.”dan tashqari “X.” dostonlarida “S.” ta’rifiga maxsus bob bag‘ishlaydi. Shuningdek, dostonlarning Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiyga bag‘ishlangan boblarida, “M.L.”, “M.Q.”, “N.J.” va boshqa asarlarida so‘zning ulug‘vorligi, jozibasi va ta’sir kuchi haqida fikrlar bildirgan. N. S.ni mazmun-mohiyati jihatidan, asosan, ikkiga bo‘lgan: Shoir “S.”-ning ilohiyligi va qadimiyligidan bahs yuritib, insonni hayratga soluvchi Qur’oni Karimdagi balog‘at va fasohatli so‘zlarni, “Lavh ul-mahfuz”dagi taqdir bitiklarini, butun koinotni yaratish u-n Tangri tomonidan “kun” (“bo‘l”) amri (so‘zi)ning sodir bo‘lishi kabilarni misol qilib keltiradi. U butun borliq Tangrining “kun” ya’ni “bo‘l!” amri b-n yaralgani va “bas avvalgi sado” S. bo‘lgani va har bir ovozning “ibtidosi” ham S. ekanini aytadi. Unga ko‘ra S. koinotdan ham qadimiyroq va yaralish, avvalo, S.dan boshlangan. S. ilohiy xitobdir.

So‘z kelib avval-u jahon so‘ngra,
Ne jahonki, kavn ila makon so‘ngra.

N. “N.J.”da inson b-n hayvon o‘rtasida S. tufayli “tafovut” borligini ta’kidlash b-n birga, “insonlarga aqllari darajasida so‘zlang” hadisini dalil keltirib, so‘zning a’lo (eng oliy), avsat (o‘rta) va adno (eng past) “marotib” (martaba, daraja)lari borligini ko‘rsatib o‘tadi. Shoir ta’biricha, eng ulug‘ va balog‘atli S. “Maliki qadim” (Allohning) kalomi bo‘lsa, “va mundin so‘ngra” “nubuvvat tili”, “risolat lisoni”ga sohib bo‘lgan hazrat Payg‘ambar alayhissalomning so‘zi, keyin to‘rtinchi xalifa bo‘lgan hazrat Alining nazm va nasrga oid so‘zlari, so‘ngra “mashoyix va avliyo”larning S.laridir. “Va avsat (o‘rta) so‘z jamoati”ga qadru darajalariga ko‘ra, fasohat va balog‘at b-n so‘zlovchi shoir-u fuzalolar kiradi. “Va adno (eng past) so‘z ahliga “avom takallumi” va barcha omi odamlarning so‘zlari kiradi. N. “M.L.”da Qur’on va hadis tili bo‘lgan arab tilining balog‘atini maqtaydi. Barcha tillarning “manshai” (sarchashmasi), “asl va mu’tabar” bo‘lgan turkiy, forsiy va hindiy tillarga to‘xtaladi. Nuh payg‘ambarning o‘g‘li Yofasdan turk tili, Somdan fors tili va Homdan hind tilining tarqalgani, shuning u-n “tavorix ahli” Yofasni “Abut-turk” Somni “Abul-furs” Homni “Abul-hind” deb atagani hamda uchala o‘g‘il qaysi yurtlarga borib, tilni yoygani haqida ma’lumot berib o‘tadi. N. “G‘.S.” debochasida “albatta she’rda hikmat va bayonda sehr bor”, degan hadis sharofatidan “shuaro” darajasi hakimlar martabasiga, “bayon rutbasi” sehr darajasiga tenglashtirilganini aytadi. N.ga ko‘ra, S. b-n inson iymon sharofatiga ega bo‘ladi va so‘nggi nafasda ham S. najotkordir. Bu so‘z tavhid kalimasi bo‘lib, kim so‘nggi nafasda aytsa, abadiy najot topadi. Sehrli so‘z va ilohiy kalom ikki kishiga – biri Muhammadi (s.a.v.) arabiy, ikkinchisi Iso Masihga xosdir. Biri S.da mo‘jiza ko‘rsatadi va nozik ma’nolari b-n elni ojiz-u hayron qoldirdi. Ikkinchisi, so‘z b-n o‘likka jon va tanga ruh kirgizdi. N. so‘zni ta’riflab, *“jism bo‘stonidagi daraxt”, “ruh daraxtlaridagi meva”*dir deydi. U “L.M.”da yozadiki*:” Seni dur deydilar, Bu – ma’qul gap emas. Sen ruh javharisan, dur – quruq suvning o‘zi-ku.*

Demak, seni durga o‘xshatish xuddi durni shudringga o‘xshatishdir”. Shoir tashbehlarni kuchaytirib, so‘zni aytib sovimaydigan tarona (qo‘shiq)qa, sarflash b-n ado bo‘lmaydigan xazinaga, nuri kamaymaydigan quyoshga, olavergan bilan suvi qurib qolmaydigan dengizga o‘xshatadi. Shoir S.ni o‘nlab favqulodda tashbehlar b-n ta’riflasa-da, ammo so‘z tartibsiz va ma’nosiz bo‘lsa, qadrsiz ekanini ham ta’kidlab o‘tgan. Tanida ruhi bor odam so‘zga muhtoj. So‘z barchaning *“ko‘ngillar qutisidagi javhar”* va *“og‘iz qutisidagi gavhar”*dir. Yaxshi S. o‘lgan odamning taniga ruh bag‘ishlasa, yomoni va zaharlisi tandagi ruhni o‘ldiradi:

So‘zdin o‘lukning tanida ruhi pok,
Ruh dog‘i tan aro so‘zdin halok.

So‘z tufayli Xalil o‘zini o‘tga tashlagan. Jabroil ham so‘z yukiga hammol bo‘lgan. Inson “ashraful maxluqot”, ya’ni yaratiqlarning eng ulug‘i sifatida so‘zlash qobiliyati b-n hayvondan farq qiladi. N. “N.J.”da so‘zning fazilati va “yuki” haqida aytadiki:

So‘zdurki nishon berur o‘lukka jondin,
So‘zdurki berur jong‘a xabar jonondin,
Insonni so‘z ayladi judo hayvondin,
Bilkim, guhare sharifroq yo‘q ondin.

N. so‘z, nutq va til haqidagi qarashlarini “M.Q.”da yanada ochiqroq va batafsilroq bayon etadi: “Chin so‘z – mo‘tabar, yaxshi so‘z – muxtasar. Ko‘p deguvchi – mumill (malol keltiruvchi) mukarrar deguvchi – loya’qil (aqlsiz). Boshqa bir o‘rinda “so‘zni uzotmoq hojat emas” va so‘zni cho‘zilib ketishini ahli ma’nilar “mustahsan (ma’qul ko‘rilgan) demas”, deydi. Chunki tandagi kasalliklarning moddasi (sababi) “ko‘p yemakdur” va qalb kasalligining moddasi “ko‘p demak”dir. “Ko‘p demak so‘zga mag‘rurluq va ko‘p yemak nafsg‘a ma’murluq”. Oldiga kelgan narsani yemoq “hayvon ishi”, Og‘ziga kelgan narsani aytmoq “nodon ishi”. Ko‘p so‘zlagan ko‘p xato qiladi va noto‘g‘ri S.dan boshga balo keladi. N. nazm va nasr uslubida bitilgan so‘zlarning o‘ziga xos jihatlariga to‘xtalgan, ayniqsa ishq harorati b-n yo‘g‘rilgan so‘zga yuqori baho bergan. Shoir S. va so‘zlovchiga nisbatan bir necha shartlar qo‘yadi:

1. Inson har qancha so‘zlash ixtiyori bo‘lsa ham, bilib qo‘ysinki, S.ning yaxshisi qisqa va lo‘ndasidir;

Har kimsaki so‘z demak shiorida durur,
Ma’ni guli nutqining bahorida durur,
So‘zkim desun ulki ixtiyorida durur,
So‘z yaxshilig‘i chu ixtisorida durur.

2. So‘zlaganda rost va qisqa gapirish kerak, “oqil chindin o‘zga demas, ammo barcha chinni ham demak oqil ishi emas”.

Xiradmand chin so‘zdin o‘zga demas,
Vale bari chin ham degulik emas.
Kishi chin so‘z desa zebo durur,
Necha muxtasar bo‘lsa, avlo durur.

3. Insonlar b-n muloyim va yumshoq muomala qilishdir. “N.J.”da aytilishicha, “Chuchuk so‘z” tufayli insonlar mehr-oqibat ko‘rsatadilar, hatto dushman ham do‘stga aylanishi mumkin. Aksincha, “qattiq so‘z” qo‘rs va qo‘pol muomala, “el ko‘ngliga ozor” beradi. Do‘stlar dushmanga aylanadi. “Chuchuk til” achchig‘liqqa evrulsa barchaga zarar yetadi. Chunki halol bo‘lgan qandni “muskir (mast qiluvchi) boda”ga aylantirsalar “harom” bo‘ladi.

Har kimki, chuchuk so‘z elga izhor aylar,
Har nechaki ag‘yordurur, yor aylar,
So‘z qattig‘i el ko‘ngliga ozor aylar,
Yumshog‘i ko‘ngullarni giriftor aylar.

4. Zarurat bo‘lmaganda, yolg‘on gapirmaslik kerak. N. nazdida, so‘zlarning eng yomoni yolg‘on so‘zdir. Yolg‘onchi Tangrining oldida ham xalqning oldida ham eng yomon bandadir. So‘z

orqali dildagi tilga chiqadi, undan inson holati, orzu-havasi anglashilib turadi:

So‘z zohir etar zamir ishi ko‘pragidin,
Til muxbir erur ko‘ngul nihon emgagidin.
Fahm ayla kishi holini so‘z demagidin –
Kim, berdi xabar hadisi ko‘nglidagidin.

“M.Q.”da yozilishicha, “til va ko‘ngul” insonning ikki ulug‘ a’zolaridan hisoblanib, “Ko‘ngul maxzani”(xazinasi)nining qulfi til va ul maxzanning kaliti so‘zdir. N. “Tilga ixtiyorsiz – elga e’tiborsiz!” kabi hikmatli o‘gitlari b-n til millatning ko‘zgusi va ma’naviy mulki ekani, uning hurmatini joyiga qo‘yish kerakligini ta’kidlab o‘tadi. O‘z davrida kotiblardan ham so‘zga xiyonat qilmaslikni talab qilgan:

Qaysi bir kotibki, ul so‘zga qalam surgay xilof,
Ul qaro yuzluk boshi bo‘lsun qalam
yanglig‘ shikof.

Shoir “M.Q.”da lisoniy birlikni tashkil etuvchi “til” va “nutq”qa aniq va lo‘nda ta’rif beradi. Til shuncha sharofati b-n “nutqning olati” ekani va agar nutq ma’nosiz va “nopisand” bo‘lsa, “til”ga “ofat” keltirishini ta’kidlaydi. N. so‘z qadri va ahamiyatini teran idrok qilgan buyuk san’atkor sifatida ulardan bahs etdi. Amalda o‘zi nodir va betakror asarlari misolida so‘zning qudrati va sehrini namoyon qildi.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик, 3-жилд. – Т., 2007; Ҳайитметов А. Алишер Навоийнинг адабий-танқидий қарашлари. – Т., 1959; Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Т., 1979.*

S.R.

SO‘FI OLLOYOR (1644, Kattaqo‘rg‘on – 1724, Vaxshivor (Denov) – tariqat arbobi, mutasavvif shoir. S.O. Kattaqo‘rg‘on bekligiga qarashli Minglar qishlog‘ida Temuryor ismli solih va taqvodor kishi xonadonida dunyoga keladi. Minglar deb atalgan dehqonchilik b-n mashhur o‘zbek qabilasiga mansub. Boshlang‘ich ma’lumotni Shayxlar qishlog‘idagi maktabda olib, so‘ng Buxoro madrasalarida o‘qishni davom ettiradi. O‘z davrining barcha asosiy ilmlarini egallaydi, arab va fors tillarini o‘rganadi. Madrasani tugatganidan keyin bir muddat Jo‘ybor shayxlari qo‘lida tahsil olgan S.O. Buxoro amiri Abdulazizxon tomonidan boj mahkamasiga to‘ra etib tayinlanadi. Lekin dunyoviy ishlar, boylik orttirishga qiziqmagan S.O. tasavvufni chuqur o‘rganish, badiiy ijod b-n shug‘ullanishni davom ettiradi. So‘fiyona fe’l, shoirona ko‘ngil sohibi bo‘lgan bir kishining bunday og‘ir va mas’uliyatli bir lavozimda ishlolmasligi ma’lum. S.O. ham ko‘p o‘tmay bojgirlik xizmatidan iste’foga chiqib, o‘z davrining dongdor shayxi Navro‘zga shogird tushadi, tariqat talablarini bajarib, shayxlik martabasiga ko‘tariladi. Karomat sohibi bo‘lgan valiyulloh bo‘lib etishadi.

S.O. birodarlari Farhod otaliq va Ollonazar biylar b-n o‘rtasida gapi qochib, o‘z yurtidan arazlab, Hisor vohasiga borib qolgan va shu yerda vafot etadi. Qabri hozirgi Denov tumanidagi Vaxshivor qishlog‘ida.

S.O. ulkan islom ulamosi, yetuk tariqat piri bo‘libgina qolmay, o‘zbek va fors-tojik tillarida mahorat b-n qalam tebratgan ta’bi nazmi baland zullisonayn shoir ham hisoblanadi. Shayx-shoir ijodining asosiy yo‘nalishi islom ma’rifatini keng xalq orasiga yoyish va tasavvufning insoniy kamolot b-n bog‘liq g‘oyalarini qizg‘in targ‘ib-tashviq etishdan iborat. U “Maslak ul-muttaqin” (“Taqvodorlar maslagi”), “Murod ul-orifin” (“Oriflar murodi”), “Maxzan ul-mute’in” (“Itoatkorlar xazinasi”) masnaviylarini fors-tojik, “Sabot ul-ojizin” (“Ojizlar saboti”) va “Favz unnajot” (“Najot tantanasi”) asarlarini turkiyda yaratgan. Forsiy va turkiy she’rlari ham mavjud.

“Sabot ul-ojizin” manzumasaning o‘zi uning ishq, tavakkul, tajarrud, tavoze, kibr, nafs, tama, qanoat, yaxshi va yomon til, yaxshi va yomon xotin,

pir va murid, darveshlik kabi qator insoniy tuyg‘u va qadriyatlar, xislat va illatlar, diniy va tasavvufiy g‘oya va tushunchalarga qarashlarda ikki shoir: N. va S.O. ijodida mushtarakliklar borligini ko‘rsatadi. “H.A.”ning imon sharhiga bag‘ishlangan 1-maqolatida N. g‘amgin o‘tirgan Boyazid Bistomiy b-n bog‘liq rivoyat keltiradi. Muridining sababini so‘rashiga javoban dunyoda el ko‘p-u ularning hammasini kishi deb bo‘lmaydi, deya javob qaytaradi. Muridning o‘zing ham shunga mansub emasmisan, degan navbatdagi savoliga esa:

Bo‘lmasa imon bila ketmak ishi,
Anglaki, oni desa bo‘lmas kishi, –

deb javob beradi. “Sabot ul-ojizin”da esa tariqat sultonining qarilik pallasida o‘zidan ketib, yana o‘ziga kelgani, muridlari buning sababini so‘raganlarida: “Ko‘zumga bir jamila tushti nogoh”, – deb javob berishi va bu gunohi u-n yig‘lay-yig‘lay qon qusgani va o‘sha gunoh xavfidan oxiri jon taslim qilgani haqidagi rivoyat keltirilib:

Muningdek yig‘lasa andoq nekuroy,
Bizingdek ro‘siyoning holiga voy, –

o‘z gunohlariga tavba qila ketadi.

Mashhur tariqat piri Abdulla Ansoriy haqidagi rivoyat esa “F.Sh.” dostonidagi Xusrav va Farhod munozarasi kabi savol-javob asosiga qurilgan:

Dedi: qaysi o‘lur ko‘nglungga marg‘ub?
Dedi: sen qaysi bersang, o‘shal xub.

Dedi: ey qul, nadur ham kasb-u koring?
Dedi: har qaysi bo‘lsa ixtiyoring.

S.O.ning:

Agarchi olama sendin tegar naf’,
O‘zungdin qilma tufrog‘ otini raf’, –

bayti ham xoksorlik va kamtarlik da’vatida bo‘lsa-da, N.ning:

Naf’ing agar xalqqa beshakdurur,
Bilki, bu naf’ o‘zungga ko‘prakdurur, –

baytini esga soladi.

Agarchandiki o‘rning bo‘lsa aflok,
Quyoshdek o‘p yurub ruxsorayi xok, –

baytida esa:

Quyoshdek manozil tay etmak kerak,
Ne rahravki, qilg‘ay kamol orzu, –

baytining ta’sirini ko‘ramiz. Ma’lum bo‘ladiki, S.O. o‘zining buyuk salafi N. adabiy merosini yaxshi bilgan va undan ijodiy ta’sirlangan.

Ad.: *Сўфи Оллоёр. Сабот ул-ожизийн. – Т., 1991; Сўфи Оллоҳёр. Маслак ул-муттақин. – Т., 2012; Ҳаққул И. Ирфон ва идрок. – Т., 1998; Ҳомидий Ҳ. Кўҳна Шарқ дарғалари. – Т., 1999; Буюк сиймолар, алломалар. 3-китоб. – Т., 1997; Тазкираи Қайюмий. 1-китоб. – Т., 1998; Саид Туркистоний. Сўфий Оллоҳёр // Ғойиблар хайлидан ёнган чироқлар. – Т., 1994; Зоҳид Р. Сўфи Оллоёр // Адабиёт кўзгуси, № 2. – Т., 1996; Очилов Э. Туркий тасаввуф адабиётининг йирик намояндаси // Барҳаёт сиймолар. – Т., 2012; Баротова Н.С. Сўфий Оллоҳёр бадиий-маънавий қарашлари. – Самарқанд, 2002.*

E.O.

SO‘G‘DIY – to‘liq ismi Mirzo Hoji So‘g‘diy. Samarqandlik shoir. “M.N.”ning ikkinchi majlisiga kiritilgan. Turkiy tilda ijod qilgan. Tazkirada uning quyidagi bayti keltirilgan:

O‘xshatti qomatingg‘a sanavbarni bog‘bon,
Bechora bilmas ermish alifdin tayog‘ni.

Bu she’r, birinchi navbatda, o‘zining soddaligi, ayni paytda go‘zalligi b-n diqqatga sazovor. Unda oddiy so‘zlar va o‘xshatishlar vositasida

o‘ziga xos badiiy mazmun ifoda etilgan. E’tirof etish lozimki, bu sodda ko‘ringan she’r zamirida anchagina gap bor. Unda go‘zal yor qomatini sanobarga o‘xshatgani u-n bog‘bonga ta’na qilinyapti va bu alif b-n tayoqni farqlay olmaslik b-n barobar ekani aytilmoqda. Lekin faqat shu emas. She’rdagi e’tirozning sababi faqat bog‘bon, e’tiroz uning o‘ziga qaratilgan, desak xato qilgan bo‘lamiz, zero, go‘zallar qaddini alifga o‘xshatish mumtoz she’riyatimiz u-n o‘ziga xos an’anadir. S.ning yuqoridagi bayti va undagi e’tiroz ana shunga ham daxldor.

S. Samarqandda vafot etgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

Q.E.

QISQARTMALAR RO‘YXATI

ar. – arabcha, arab tilida
a.s. – alayhissalom
akad. – akademik
“A.” – “Arba’in”
b-n. – bilan
“B.B.” – “Badoye ul-bidoya”
“B.V.” – “Badoye ul-vasat”
“D.F.” – “Devoni Foniy”
er. av. – eramizdan avvalgi
“F.A.” – “Fusuli arbaa”
“F.K.” – “Favoyid ul-kibar”
“F.Sh.” – “Farhod va Shirin”
f.f.n. – filologiya fanlari nomzodi
f.f. d-ri – filologiya fanlari doktori
f. – forscha, fors tilida
f-t. – fors-tojik
“H.A.” – “Hayrat ul-abror”
“H.S.H.A.” – “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”
“H.P.M.” – “Holoti Pahlovon Muhammad”
h. – hindcha, hind tilida
h.k. – hokazo
“I.D.” – “Ilk devon”
inv. – invertar
l. – lotincha
“L.M.” – “Layli va Majnun”
“L.T.” – “Lison ut-tayr”
m-n. – masalan
maz. – mazmuni
mil. av. – miloddan avvalgi
“M.N.” – “Majolis un-nafois”
“M.Q.” – “Mahbub ul-qulub”
“M.A.” – “Mezon ul-avzon”
“MAT” – Mukammal asarlar to‘plami
“M.L.” – “Muhokamat ul-lug‘atayn”
“M.” – “Munshaot”
“Munj.” – “Munojot”
mo‘g‘. – mo‘g‘ulcha
N. – Navoiy
N.xonlik – Navoiyxonlik
N.shunos. – Navoiyshunos
“N.N.” – “Navodir un-nihoya”
“N.Sh.” – “Navodir ush-shabob”
“N.J.” – “Nazm ul-javohir”
“N.M.” – “Nasoyim ul-muhabbat”
prof. – professor
q. – qozoqcha
q.s.a. – quddisa sirruhum aziz
q.t.s. – qaddasollohu taolo sirrahu
r.a. – roziyallohu anhu
r.t. – rahmatullohu taolo
“R.M.” – “Risolayi mufradot”
s.t. – subhanohu taolo
s.a.v. – sallollohu alayhi vasallam
“S.” – “Soqiynoma”
“S.S.” – “Sab’ai sayyor”
“S.I.” – “Saddi Ikandariy”
“S.M.” – “Siroj ul-muslimin”
“S.Z.” – “Sittayi zaruriya”
sm. – santimetr
Tarj. – tarjimasi
“T.A.” – “Tuhfat ul-afkor”
“T.A.H.” – “Tarixi anbiyo va hukamo”
“TAT” – Tanlangan asarlar to‘plami
“T.M.A.” – “Tarixi muluki ajam”
t. – turkiy
t.y. – tug‘ilgan yili
t.y.n. – tug‘ilgan yili noma’lum
t. va v.e.y.n. – tug‘ilgan va vafot etgan yili noma’lum
u-n. – uchun
“V.” – “Vaqfiya”
v.y.n. – vafot yili noma’lum
v.e.y.n. – vafot etgan yili noma’lum
y. – yunoncha, yunon tilida
y. – yil, yili, yilda, yilning
yy. – yillar, yillari, yillarda, yillarning
O‘zME – O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi
O‘zMU – O‘zbekiston Milliy Universiteti
O‘zR FA – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
“X.” – “Xamsa”
“X.M.” – “Xazoyin ul-maoniy”
“Xam.M.” – “Xamsat ul-mutahayyirin”
“G‘.S.” – “G‘aroyib us-ig‘ar”
ShI. – Sharqshunoslik instituti
ShQM. – Sharq qo‘lyozmalari markazi
“Ch.D.” – “Chor Devon”

№	“ALISHER NAVOIY ENSIKLOPEDIYASI” MUALLIFLAR RO‘YXATI		Qisqartmalar
1	Muhammad ABDULLAYEV	*filologiya f.n.*	*Muh.A.*
2	Abdusalom ABDUQODIROV	*filologiya f.d., prof.*	*Ab.A.*
3	Abdurashid ABDUG‘AFUROV	*filologiya f.d., prof.*	*A.A.*
4	Shoira AHMEDOVA	*filologiya f.d., prof.*	*Sh.A.*
5	Toshpo‘lat AHMEDOV	*filologiya f.n*	*T.A.*
6	Azizullah ARAL	*f.f.b.f.d. (PhD)*	*Az.A.*
7	Maqsud ASADOV	*filologiya f.d., prof.*	*M.A.*
8	Gulnora ASTANOVA	*filologiya f.d., dotsent*	*G.A.*
9	Dilmurod ASQAROV		*D.A.*
10	Hamida ASHUROVA		*H.A.*
11	Nazora BEKOVA	*filologiya f.d., prof.*	*Naz.B.*
12	Nasiba BOZOROVA	*filologiya f.n., dotsent*	*N.B.*
13	Olim DAVLATOV	*f.f.b.f.d. (PhD)., dotsent*	*O.D.*
14	Qodirjon ERGASHEV	*filologiya f.d.*	*Q.E.*
15	Iroda ERNAZAROVA	*f.f.b.f.d. (PhD)*	*I.E.*
16	Husniddin ESHONQULOV	*filologiya f.d., prof.*	*H.E.*
17	Baxtiyor FAYZULLOYEV	*filologiya f.n., dotsent*	*B.F.*
18	Obidaxon FAYZULLAYEVA	*filologiya f.d.*	*O.F.*
19	Munis HAKIMOV		*Mun.H.*
20	Muhammadjon HAKIMOV	*filologiya f.d., prof.*	*Muh.H.*
21	Ibrohim HAQQUL	*filologiya f.d., prof.*	*I.H.*
22	Mahmud HASANIY	*tarix f.d., prof.*	*M.H.*
23	Nodirxon HASANOV	*filologiya f.d., prof.*	*N.H.*
24	Shafoat HASANOVA	*filologiya f.d.*	*Sh.H.*
25	Abduqodir HAYITMETOV	*filologiya f.d., prof.*	*Ab.H.*
26	Anvar HOJIAHMEDOV	*filologiya f.d., prof.*	*An.H.*
27	Hamidjon HOMIDIY	*filologiya f.d., prof.*	*H.H.*
28	Nishonboy HUSANOV	*filologiya f.d., prof.*	*Nish.H.*
29	Muyassar IBROHIMOVA	*f.f.b.f.d. (PhD)*	*M.I.*
30	Yoqubjon IS’HOQOV	*filologiya f.n., prof.*	*Y.I.*

31	Rashid JUMAYEV	*f.f.b.f.d. (PhD)*	*R.J.*
32	Sofiya JUMAYEVA	*filologiya f.n., dotsent*	*S.J.*
33	Nusratulla JUMAXO‘JA	*filologiya f.d., prof.*	*Nus.J.*
34	Laylo JO‘RAYEVA	*san’atshunoslik f.b.f.d. (PhD)*	*L.J.*
35	Nasiba JO‘RAQULOVA		*N.J.*
36	Farida KARIMOVA	*filologiya f.d*	*F.K.*
37	Yulduz KARIMOVA	*filologiya f.n., dotsent*	*Y.K.*
38	Najmiddin KOMILOV	*filologiya f.d., prof*	*N.K.*
39	Iskandar MADG‘OZIYEV		*I.M.*
40	Natan MALLAYEV	*filologiya f.d., prof*	*N.M.*
41	Muzaffar MAMATQULOV	*filologiya f.d*	*Muz.M.*
42	Badriddin MAQSUDOV	*filologiya f.d., prof*	*Badr.M*
43	Mohigul MAVLONOVA		*M.M.*
44	Barno MIRZAYEVA	*f.f.b.f.d. (PhD)*	*B.M.*
45	Mahbuba MIRZAAHMEDOVA		*Mah.M.*
46	Badia MUHIDDINOVA	*filologiya f.d.*	*Bad.M.*
47	Abdumannon NAZAROV	*san’atshunoslik f.d., prof.*	*A.N.*
48	Shahnoza NORQULOVA	*f.f.b.f.d. (PhD)*	*Sh.N.*
49	Marvarid NURBAYEVA		*M.N.*
50	Ergash OCHILOV	*f.f.n., dotsent*	*E.O.*
51	Sarvinoz OTAQULOVA		*S.O.*
52	Zeboxon QOBILOVA	*filologiya f.d., prof*	*Z.Q.*
53	Turg‘un QODIROV		*T.Q.*
54	Karimboy QURAMBOYEV	*filologiya f.d., prof*	*K.Q.*
55	Elnura QURBONOVA	*f.f.b.f.d. (PhD)*	*E.Q*
56	Komiljon RAHIMOV	*tarix f.d.,prof.*	*K.R.*
57	Vahob RAHMONOV	*filologiya f.n., dotsent*	*V.R.*
58	Zulayho RAHMONOVA	*f.f.b.f.d. (PhD), dotsent*	*Z.R.*
59	Shahnoza RAHMONOVA		*Sh.R.*
60	Burobiya RAJABOVA	*filologiya f.n., dotsent*	*B.R.*
61	Sayfiddin RAFIDDINOV	*filologiya f.n., dotsent*	*S.R.*
62	Nodir RAMAZONOV	*f.f.b.f.d. (PhD)*	*N.R.*
63	Rohila RO‘ZMONOVA	*filologiya f.n., dotsent*	*R.R.*
64	Dilorom SALOHIY	*filologiya f.d., prof.*	*D.S.*
65	Gulnoz SATTOROVA	*filologiya f.n., dotsent*	*G.S.*

66	Qaldibek SEIDANOV		*Q.S.*
67	Hanifa SOLIXOVA	*filologiya f.n., dotsent*	*H.S.*
68	Shodiya TURDIYEVA		*Sh.T.*
69	Ozoda TOJIBOYEVA	*f.f.b.f.d. (PhD)*	*O.T.*
70	Olmos ULVIY (BINNATOVA)	*filologiya f.d., prof.*	*O.U.*
71	Ergash UMAROV	*filologiya f.d., prof.*	*E.U.*
72	Gulnoz XALLIYEVA	*filologiya f.d., prof.*	*G.X.*
73	Muslima XOLBOYEVA		*M.X.*
74	Sirdaryoxon O‘TANOVA	*filologiya f.n., dotsent*	*S.O‘.*
75	Suyima G‘ANIYEVA	*filologiya f.d., prof.*	*S.G‘.*
76	Dilshod G‘OYIPOV	*filologiya f.d., prof.*	*D.G‘.*
77	Maftuna SHOMURODOVA		*M.Sh.*
78	Nodir JO‘RAQO‘ZIYEV	*filologiya f.d.*	*Nod.J.*

РЕЗЮМЕ

Изучение жизни и творчества Алишера Навои, великого поэта-мыслителя, несравненного представителя истории человеческой цивилизации, зрелого государственного и общественного деятеля, продолжается и по сей день. Источник вдохновения поэта, тайны совершенства, духовная сила творчества, кроме того, его ни с чем не сравнимое место в развитии искусства поэтического слова чрезвычайно велико и уникально. Вот почему внимание к литературному наследию Алишера Навои не только в Узбекистане, но и среди тюркских народов, и во всем мире имеет особое значение, поскольку Навои призывает человечество к согласию, солидарности, миру и дружбе.

Изменения и свобода в социальной, политической, культурной и духовной жизни нашей страны после 2016 года нашли отражение в изучении наваиведения. Глава государства Ш.М. Мирзиёев с первых дней своей деятельности на посту Президента уделяет особое внимание вопросам исследования творчества Навои и призывал народ изучать его произведения с новой духовной потребностью и целью. В постановлении Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года №ПП-4865 «О широком праздновании 580-летия со дня рождения великого поэта и мыслителя Алишера Навои», также включен вопрос об издании четырёхтомной «Энциклопедии Алишера Навои». Данная энциклопедия создана для выполнения этой задачи и ознакомления широкой общественности с жизнью, творчеством, литературным и научным наследием великого поэта-мыслителя, а также достижениями наваиведения.

В энциклопедии, прежде всего, собрано большинство статей, относящихся ко второй половине XV века, то есть о ряде положительных событий и изменений в общественной, политической, духовной и литературной жизни Хорасана и Моваруннахра, конечно-же, уделяется внимание к анализу факторам, которые вызвавали этих перемен. Это позволяет понять жизненную силу Тимуридского Возрождения и внимательно изучать роль Алишера Навои в нем. В энциклопедию также вошли статьи о детстве великого поэта, его близких родственниках, учителях и подробностях его отношений с ними. В частности, исторические сведения и мнения, ка сающиеся семьи Навои, образа жизни в Мешхеде, Балхе, Самарканде, и друзей поэта, безусловно, не оставят читателей равнодушными.

Как государственный деятель, Алишер Навои проявил свои лидерские качества в политической деятельности, в частности, он руководил рядом строительных работ, таких как рытье рвов, строительство мостов, парков, медресе, мечетей, больниц, о которых говорится в очень интересных статьях. Из книги можно получить достаточно информации о тюркских народах, известных поэтах и чиновниках Герата, столицы Хорасана во времена правления Хусейна Бойкара.

Творчество Алишера Навои – особое явление не только в узбекском, но и в восточном классическом искусстве. Смысловой мир его произведений, масштаб темы, способ выражения поэта, мир образов, система жанров, художественные возможности тщательно и систематически освещаются в энциклопедических статьях. Известно, что Алишер Навои, как великий двуя

зычный поэт, умело писал на двух языках – турецком и персидском. Читателей не оставят равнодушными мнения о наследии поэта на персидском языке, его общечеловеческом значении и изучении. В книге содержится множество статей о поэмах и героях «Хамсы» Алишера Навои, которые, как известно, занимают большое место в истории восточной литературы, а также можно познакомиться с важными взглядами ученых в этой сфере. Статьи, посвященные духовным ценностям, освещающим творчество великого поэта-мыслителя: религии, мистике, мистическому смыслу и интерпретациям, повысили научную ценность энциклопедии.

Опытные переводчики неоднократно переводили произведения Алишера Навои на разные языки мира; они изданы в виде книг в ряде стран. Информация об этих переведенных работах, а также достижения в мировых исследованиях наваиведения указывают на объём энциклопедии. Рукописные и литографические издания произведений Алишера Навои хранятся в различных библиотечных фондах мира. По ним также создано несколько каталогов. Одним из достижений книги является то, что она дает о них как можно больше информации. Несомненно, читателей интересует возникновение в области литературоведения важного направления под названием «наваиведение», этапы его развития, зрелые ученые, их беспрецедентный вклад в развитие науки. Статьи, написанные по направлениям «Навои и живопись», «Навои и скульптура», «Навои и кино» и «Навои и театр», показывают, как великий образ поэта отражается в жизни общества. Что касается статей, написанных в рубрике «Навои и наука», то в них подробно освещаются факты, связанные с конференциями, посвященными творчеству и деятельности Навои, научным исследованиям, ученым, принимавшим участие в этом процессе.

В узбекской науке за многие годы сделано немало положительных работ по изучению наследия великого мыслителя и поэта: среди них научные и критические тексты его произведений, неоднократные издания, обзоры его лирических произведений, прозаические повествования его поэм тоже занимает особое место энциклопедии. Также вы можете найти ценную информацию о предприятиях и организациях имени Навои в стране.

В целом «Энциклопедия Алишера Навои» представляет собой относительно совершенную книгу, охватывающую личность, мировоззрение, биографию, жизнедеятельность, литературное и научное наследие великого поэта-мыслителя, подробные сведения и научные анализы о исследованиях и достижениях в направлении наваиведения. Энциклопедия предназначена для старшеклассников, студентов высших учебных заведений, преподавателей, представителей интеллигенции различных профессий, специалистов науки и творчества, а также читателям.Естественно, что это издание, как и любая другая книга, может иметь и некоторые недостатки. Однако, как отдельная отрасль науки наваиведения также продолжает развиваться, поэтому мелкие ошибки можно исправить в будущих изданиях. Мы надеемся, что эта «Энциклопедия Алишера Навои» во многом поможет приблизить Навои к народу, а, в свою очередь, народ к Навои.

SUMMARY

Alisher Navoi was a prominent poet and thinker who had a significant impact on the development of human civilization. His life and work continue to inspire people to this day. The study of them by scientists has never stopped. The source of inspiration, secrets of spiritual perfection and strength of his creation has a unique place in the development of the art of poetic speech. The particular importance of Navoi's literary heritage has been proven by scientists not only in Uzbekistan but also among the Turkic peoples and the rest of the world. His books are unique. They emphasize the significance of harmony, unity, peaceful living, cooperation, and friendship which make people go through the true way.

The renewal and freedom in the social, political, cultural, and spiritual life of our country after 2016 has also reflected in Navoi studies. From the first days of his activity, the President of our country Sh.M. Mirziyoyev encouraged the whole nation to read and study Navoi's work with a new spiritual need and purpose. In the resolution of the President of the Republic of Uzbekistan dated October 19, 2020 No. PR-4865 "On the wide celebration of the 580th anniversary of the birth of the great poet and thinker Alisher Navoi", including the publication of the four-volume "Encyclopedia of Alisher Navoi" was also included. This encyclopedia was created in order to fulfill this task and familiarize the general public with the life, work, literary and scientific heritage of the great thinker poet, as well as the achievements of Navoi studies.

The encyclopedia devoted a lot of space to positive developments in the social, political, spiritual, and literary life of Khurasan and Movarounnahr during the second half of the 15th century, when Alisher Navoi lived, as well as the factors that created them. This allows us to understand the vitality of the Timurid Renaissance and closely observe the role of Alisher Navoi in it. There are a lot of articles about the childhood years of the great poet, his close relatives, and the details of his interactions with them in the encyclopedia they also have a significant place. The historical information and opinions related to Navoi's family, lifestyle in Mashhad, Balkh, Samarkand, his friends and contemporaries can provide readers with interest. As a minister, Alisher Navoi fully demonstrated his leading qualities in his political activities. He oversaw the construction of various structures such as ditches, bridges, parks, madrasahs, mosques, and hospitals. It should be noted that each of these works was mentioned in the encyclopedia. From the book, you can learn enough about the Turkic peoples who lived and worked in Herat, the capital of Khurasan under the rule Sultan Husayn Bayqara. It is possible to find a valuable information about their unique nature, customs, and the positions that they held in the palace in 15th century. The articles interestingly and impressively tell about the contemporaries, friends of the great poet, creative people from the time of the famous composer Alisher Navoi, and their path.

Alisher Navoi was a remarkable figure not just in Uzbek literature, but also in Eastern classical art. His books were characterized by their depth of meaning, wide-ranging subject matter, expressive style, vivid imagery, diverse genres, and artistic versatility. These aspects of his work have been carefully and systematically covered in encyclopedic articles. Navoi was a great poet who wrote equally well in

Turkish and Persian. This book includes insightful reflections on his Persian-language poetry, its universal significance, and its study. Additionally, the book covers his epic work "Khamsa," which holds a prominent place in the history of Eastern literature, along with its heroes and important views on Hamsaology. The articles in this book also shed light on the spiritual values of Navoi's work, including religion, mysticism and mystical interpretations, thereby enhancing the scientific significance of the encyclopedia.

The literary works of Alisher Navoi have been translated multiple times by experienced translators into various languages. These translations have been published and can be found in different libraries of the world. Manuscript and lithographic editions of Navoi's works are also available in these libraries and several catalogs have been created to organize information about them. This encyclopedia provides extensive information about Navoi studies, including the emergence of this field of literary studies, its development, important scholars, and their contribution to the field. Articles about Navoi's connection with painting, sculpture, cinema, and theater also show how his works have influenced society. Furthermore, the encyclopedia includes articles about Navoi's involvement with science, including information about conferences, scientific studies, and notable scholars and researchers who participated in these events.

Over the years, many positive works have been carried out in Uzbek science to understand the language of the great poet. These include scientific and critical texts, and repeated editions of his works in volumes and separately, reviews of the poet's lyrical heritage, and articles about them in the encyclopedia. Moreover, information which is related to the place names, enterprises, and organizations named after Navoi has not been overlooked.

In general, the "Alisher Navoi Encyclopedia" is an almost perfect reference book that covers many things about Navoi's personality, worldview, biography, life activities, literary, scientific heritage, detailed information, Navoi studies, and achievements in this field. It is intended for high school and educational institution students, teachers, intellectuals with various professions and trades, people of science and creativity. Like any publication, this book also has some mistakes, but the science of Navoi studies has never stopped developing. Therefore, it is clear that they can be corrected in the next editions. We believe that the "Alisher Navoi Encyclopedia" will be a useful resource to recognise Navoi's world well.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI

ALISHER NAVOIY ENSIKLOPEDIYASI

III JILD

(N–S)

Muharrirlar: Dilmurod Asqarov, Hamida Ashurova
Badiiy muharrir: Mirzohid Rustamov
Musahhihlar: Sarvinoz Otaqulova, Shodiya Husniddinova
Kompyuterda sahifalovchilar: Bobur Tuxtarov, Mirzohid Rustamov

Bosishga ruxsat etildi 08.02.2024. Bichimi: 84x108 $^{1}/_{16}$.
“Times New Roman” garniturasi. Shartli bosma tabog‘i ___.
Nashriyot-hisob tabog‘i ___. Adadi: 1000 nusxa.

“Credo Print” MCHJ kitob fabrikasida chop etildi.
Toshkent shahar, Bog‘ishamol ko‘chasi 160.
Tel: 71 234-44-01/05 www.credoprint.uz

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI

ALISHER NAVOIY ENSIKLOPEDIYASI

IV JILD

(T–CH)

TOSHKENT – 2024

TAHRIR HAY'ATI
Bahrom ABDUHALIMOV, Nizomiddin MAHMUDOV,
Shuhrat SIROJIDDINOV, Sirojiddin SAYYID, Jabbor ESHONQULOV,
Olim DAVLATOV, Nodir JONUZOQ, Isajon SULTON

ILMIY-IJODIY GURUH
Abduqodir HAYITMETOV, Ibrohim HAQQUL, Maqsud ASADOV,
Qodirjon ERGASHEV, Sayfiddin RAFIDDINOV, Ergash OCHILOV,
Burobiya RAJABOVA, Zulayho RAHMONOVA, Sirdaryoxon O'TANOVA

MAS'UL MUHARRIR
Maqsud ASADOV,
filologiya fanlari doktori, professor

NASHR UCHUN MAS'ULLAR
Elnura QURBONOVA, Shahnoza RAHMONOVA,
Hamida ASHUROVA, Dilmurod ASQAROV

TAQRIZCHILAR
Dilorom SALOHIY, *filologiya fanlari doktori, professor*
Dilnavoz YUSUPOVA, *filologiya fanlari doktori, professor*

MUNDARIJA

T 5

U 110

V 140

X 170

Y 260

Z 306

O‘ 339

G‘ 353

Sh 375

Ch 452

Qisqartmalar ro‘yxati 467

“Alisher Navoiy Ensiklopediyasi” mualliflar ro‘yxati 468

Резюме (рус.) 471

Summary (ingl.) 473

UO‘K 821.512.133-1
KBK 84(5O‘)-5
M 30

Alisher Navoiy ensiklopediyasi: Toshkent – O‘zbekiston nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2024. – ___b.

Ko‘p jildli “Alisher Navoiy ensiklopediyasi” buyuk shoir va mutafakkir, yirik davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiy mansub bo‘lgan XV asrning II yarmi Xuroson va Movarounnahrdagi tarixiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy va adabiy hayot, ulug‘ shoirning tarjimayi holi, faoliyati, yaqinlari, do‘stlari, ijodiyotining ma’naviy sarchashmalari, salaflari, adabiy merosi va uning jahonshumul ahamiyati, qolaversa, mumtoz adabiyotimiz tarixida tutgan beqiyos o‘rni xususida atroflicha ma’lumotlarni qamrab olgan yirik qomusdir. Ensiklopediyadan navoiyshunoslik masalalari, buyuk shoir asarlarining turli yillardagi nashrlari, xorijiy tillarga tarjimalari, yurtimiz va jahon kutubxonalari xazinalarida saqlanayotgan qo‘lyozma hamda toshbosma kitoblari, shuningdek, rassomchilik, haykaltaroshlik, teatr, kino singari san’at turlarida Alisher Navoiy siymosining aks ettirilishiga doir maqolalar ham o‘rin olgan. Turli she’riy janrlarga oid asarlarining sharh va tahlillaridan ayrim namunalar keltirilgan. Jumladan, kitobning mazkur 4-jildiga 578 ta maqola kiritilgan bo‘lib, ular mavzu xilma-xilligi, ko‘pgina ma’lumot va dalillarning yangiligi, aniqligi va qiziqarliligi bilan o‘ziga xosdir.

“Alisher Navoiy ensiklopediyasi” navoiyshunos olimlar, mumtoz adabiyot bilan shug‘ullanuvchi tadqiqotchilar, oliy ta’lim muassasalarining o‘zbek filologiyasi yo‘nalishi professor-o‘qituvchilari, talabalari, o‘rta maktablarning adabiyot muallimlari, umuman, Alisher Navoiy hayoti va ijodiyotiga qiziquvchi keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-oktyabrdagi “Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi PQ-4865-son qaroriga asosan Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbek tilini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan chop etildi.

ISBN 978-9910-9558-7-7
© “O‘zbekiston” nashriyoti, 2024

T

TAAJJUB (ar. – ajablanish, hayron bo‘lish) – she’riy nutqning ta’sirchanligini oshirishga qaratilgan badiiy san’atlardan biri bo‘lib, unda shoir o‘z fikrini hayrat vositasida izhor qiladi. Atoulloh Husayniyning yozishicha, bu san’at shundan iboratki, “kalomda bir nimadin hayron bo‘lub ajablanurlar”. Ya’ni muallif biror narsa-hodisa, holat va boshqalardan olgan taassurotlarini o‘zini hayron qolganday bir yo‘sinda ifodalaydi. Ba’zida o‘z fikri va ta’riflarini rad etib, keyin o‘sha narsaning yangi sifat va xislatlari izhori b-n avvalgi so‘zlarini tasdiqlaydi. Bu usuldan N. ham turli janrdagi asarlarida mahorat b-n foydalangan. M-n, “Ekin oyo” radifli g‘azallari buning yorqin misolidir:

May birla yuzung tim-tim ahmarmu ekin oyo,
Yo shu’la aro bir-bir axgarmu ekin oyo?

Bir sari qulog‘ingda gavharmu ekin yoxud
Bir jonibida oyning axtarmu ekin oyo?

Bu baytlarda shoir “Yuzing may tobidan qatra-qatra qizilmi yoki shu’la ichida bir-bir uchqunmi? Qulog‘ingning biriga osilgan gavharmi yoki oyning bir tomonida yulduzmi”, – deb o‘zini hayron qolganday ko‘rsatishi barobarida ma’shuqaning may qizartirgan yuzi o‘t ichidagi chog‘ga, gavhar osilgan qulog‘i oy yonidagi yulduzga o‘xshab ketishini tasdiqlamoqda.

Chunki Shirin ko‘zi behad qoradur, bas necha mil
Toshni surma nedin ayladi, oyo, Farhod?

Bu baytda esa shoir “Shirinning ko‘zi shundog‘am haddan ziyoda qora-ku, shunday ekan, Farhodning necha mil (masofa o‘lchovi) tog‘-ni surmaga aylantirishida nima ma’ni?” – deya tog‘ni talqon qilib, go‘yo surmaga aylantirganidan o‘zining taajjubini izhor etadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойеъ ус-санойеъ (А.Рустамов тарж.). – Т., 1981; Зеҳний Т. Санъати сухан. – Душанбе, 2007; Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2010.*

E.O.

TAAYYUN (ar. – muayyan bo‘lish, ayon bo‘lish; narsalar ichidan ajralib va bilinib turish; aniqlik, ma’lumlik; aniq va ravshan ko‘rsatish) – oriflar va zavq ahli nazarida, ulug‘likka yetish, imtiyozga ega bo‘lishdan iborat. Ilk T. – vahdat martabasi, ikkinchi T. – vohidiyat martabasi. Mutasavviflar tasavvurida Haqda hamma narsa mavjud bo‘lib, ular bizga noma’lumdir. Narsalarning Haqdan tajalliy ko‘rinishida ajralib chiqishlari T. shaklida namoyon bo‘ladi. Shunga muvofiq ayon narsalar, dunyo g‘oyalari taayyunot deyiladi. N. she’riyatida ham T. irfoniy ma’nolarni yuzaga chiqaradi. M-n:

Taayyunot ichida ishq bir haqiqat erur,
Gar o‘lsa bulbul-u parvonadin va gar mendin.

Bulbuldanmi, parvonadanmi yo mendanmi, kimdan sodir bo‘lishidan qat’i nazar, ishq muayyanlik ichra bir haqiqatdir.

Ad.: *Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011; Саж-*

жодий. Фарҳанги истилоҳот ва таъбироти ирфоний. – Теҳрон, 1379 (ҳ.ш.); Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005.

E.O.

TABIBIY (taxallusi; ismi: Ahmad Tabibiy (1869–1911) – shoir, tarjimon. Xiva madrasalarida tahsil olgan. Otasi Ali Muhammad va Bayoniyning akasi Yaxshimurodbekdan tabiblik sirlarini o‘rgangan. Muhammad Rahimxon II – Feruz saroyida tabiblik qilgan. Ayni paytda, she’rlari b-n shuhrat qozongan. Sermahsul va serqirra iste’dod sohibi bo‘lib, 5 devon tuzgan: “Tuhfat us-sulton” (“Sultonga tuhfa”), “Munis ul-ushshoq” (“Oshiqlar hamdami”), “Hayrat ul-oshiqin” (“Oshiqlar do‘sti”) – o‘zbek tilida, “Mir’ot ul-ishq” (“Ishq ko‘zgusi”), “Mazhar ul-ishtiyoq” (“Ishtiyoq manbayi”) – fors-tojik tilida. U o‘zbek adabiyotida muxammas janri taraqqiyotiga katta hissa qo‘shib, Sa’diy, Jomiy, N., Zebunniso, Munis, Ogahiy, Mirzo G‘olib kabi ko‘plab shoirlarning g‘azallariga jami 518 ta muxammas bog‘lagan. Xorazm shoirlari haqida “Majmuat ush-shuaroyi payravi Feruzshohiy” (“Shoh Feruzga izdoshlik qilgan shoirlar tazkirasi”), “Majmuayi muxammasoti ash-shuaroyi Feruzshohiy” (“Shoh Feruz davri shoirlari muxammaslari majmuasi”) tazkiralarini tuzgan. “Vomiq va Uzro” qissasini she’rga solgan (8100 bayt), Fuzuliyning “Haft jom” (“Yetti qadah”) masnaviysini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. “Yetti ravza” (“Yetti bog‘”) nomli asar ham yozgan.

T. dasturiy xarakterdagi bir g‘azalida ijod yo‘lida Sa’diy, Hofiz, Jomiy, N. va Bedildan saboq olganini aytadi.

T. N.ning “Ayt”, “Fido”, “O‘t”, “Erur” radifli qator g‘azallariga tatabbu’lar qiladi. 20 dan ziyod g‘azallariga taxmislar bog‘laydi. Qator baytlarida esa ustozi qalamga olgan mavzularni davom ettirib, fikrlarni rivojlantirib, tashbehlarni boyitadi. M-n, shoirning:

Zohid tutdi zuhd-u taqvo yo‘lini,
Bizning dil esa jununu savdo yo‘lini.

Gulchehra visolini biz etsak orzu,
Hur suhbati zohid xayolida ammo, –

degan ruboiysi buyuk salafining

Zohid senga hur-u manga jonona kerak,
Jannat sanga bo‘lsun, manga mayxona kerak.

Mayxona aro soqiy-u paymona kerak,
Paymona necha bo‘lsa to‘la, yona kerak, –

degan mashhur ruboiysi ta’sirida yaratilgani shubhasiz.

T.ning:

Agar odam esang, og‘ritma odam ko‘nglini zinhor
Ki, ahli ma’rifat nazdida Ka’ba qalbi mo‘mindur,

bayti esa N.ning “H.A.” dostonidagi mashhur olamning qiblasi bo‘lishiga qaramay, Ka’baning ko‘ngil ka’basichalik qadri yo‘q mazmunidagi:

Ka’baki, olamning o‘lub qiblasi,
Qadri yo‘q onchakim, ko‘ngul ka’basi, –

misralarining ijodiy ishlangan yangicha talqinidir.

T. N. g‘azallarida o‘sha vazn, qofiya va radifda tatabbu’ qilsa-da, taqlid doirasida qolib ketmay, o‘ziga xos original g‘azallar yaratadi. “Bo‘ldi tut” radifli g‘azal fikrimizning yorqin dalilidir:

N.:

Qasri johingg‘a sipehr avjida ayvon bo‘ldi tut,
Ham sipehr osiybidin yer birla yakson bo‘ldi tut.

T.:

Gar o‘zungin dahr xalqi ichra sulton bo‘ldi tut,
Lek jisming oqibat yer birla yakson bo‘ldi tut.

N. qasr-u martabangni falak avjiga yuksaltirgan taqdir falak ofatidan yer b-n yakson ham qiladi, deb azaliy va abadiy haqiqatni badiiy talqin qil-

sa. T. lo‘nda qilib dunyoning sultoni bo‘lsang ham oqibat yer b-n yakson bo‘lasan deb qo‘ya qoladi.

T. muxammaslari N. g‘azallarida qalamga olingan mavzularni yanada kengaytirish va chuqurlashtirish, ularda ilgari surilgan fikrlarni davom ettirish va rivojlantirish, ulug‘ shoir qo‘llagan tashbehlarni boyitish va yangi qirralarini ochish, baytlar ma’nosini sharhlash va izohlashga yo‘naltirilgan. M-n, quyidagi maqta’da N. boqiy umr tilasang, ilohiy mahbubadan boshqa narsani xayolingdan chiqar, degan fikrni ifodalagan bo‘lsa, T. bu fikrni insonning aslida tuproqdan yaratilganligi, binobarin, kibr-u havo qilishga haqi yo‘qligi, agar aqli bo‘lsa, o‘tkinchi dunyodan etak silkishi kerakligi haqidagi fikrlar b-n to‘ldiradi – natijada, bayt mazmuni yanada boyiydi:

Ey vujuding aslidur qilsang nazar xoki kesak,
Bas, na lozimdur Tabibiydek sanga kibr aylamak,
Oqil ersang dahri foniydin hamisha silk etak,
Ey Navoiy, gar nasibingdur abad umre, kerak,
Xotiringda yordin o‘zga tamanno bo‘lmasa.

N. adabiy merosining T. ijodiga ta’siri rangbarang bo‘lib, bu mavzu kelgusida keng va chuqur tadqiq etilishi kerak.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Ғанихўжаев Ф. Аҳмад Табибий // Табибий. Танланган асарлар. – Т., 1968; ЎзМЭ. 8-жилд. – Т., 2004.*

E.O.

TABRIZ – Eronning shimoli-g‘arbiy qismida joylashgan yirik iqtisodiy shahar. 2018-y. “Islomiy turizmning poytaxti” maqomini olgan. Viloyat aholisi, asosan, ozarbayjon tilida so‘zlashadi. Fors tili ikkinchi rasmiy til hisoblanadi. T. tarixda buyuk allomalarni yetishirgan shahar sifatida ham mashhurdir. N. g‘azallarining birida:

Shah Navoiy tilidek tig‘ ila ko‘p mulk ochti,
Tortmish ochqali Bag‘dod ila Tabrez qilich,–

deya T. shahrini tilga oladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Ҳаққул И. Касби камол ўзни танишдир. – Т., 2021.*

Z.R.

TABRIZIY PIRMUHAMMAD IBN SHAYX TOHIR – Tabriz xattotlik maktabi vakili, Mir Ali Tabriziyning an’anasini davom ettirib, xatti nasx va nasta’liqda yozgan. XVI asrning birinchi yarmida yashagan. Bu xattot ko‘chirgan N.ning bir terma devoni O‘zR FAShIda inv. 98 raqami b-n mavjud. Hajmi 167 varaq. Kotib o‘z ismini “Pir Muhammad ibn Shayx Tohir Tabriziy” deya qayd etgan va qo‘lyozmaning kitobat sanasida 935-hijriy yil sha’bon oyi (1529. 24 aprel) ko‘rsatilgan.

Ad.: *Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. – Т.,1991; Собрание восточных рукописей академии наук Узбекистан. VII. – Т., 1964.*

Muh.A.

TAB’ (ar. – tabiat, qobiliyat, iste’dod) – N.da asosan qobiliyat, zehn ma’nosida keladi. “M.N.” shoirlar haqidagi tazkira bo‘lgani u-n unda T. so‘zi juda ko‘p ishlatiladi.

Ba’zi shoirlar haqida N. “tab’i xo‘b erdi” deb yozadi. Bu shoirlarda alohida qobiliyat bo‘lgan. Ba’zi hollarda shoirning tabiatida sho‘xlik xususiyati borligi ham T. so‘zi orqali beriladi. M-n, “Sherozning sho‘x tab’laridan biri” deb yozar ekan, N. tabiatan sho‘x odamni nazarda tutadi. “Tab’i hazlg‘a moyil erdi” deganda esa shoir iqtidorida hazil-mutoyiba tuyg‘usi mavjudligiga

ishora qilinadi. “Tab’ining muloyimati muammo fanida ta’rif qilg‘ucha bor” jumlasidan o‘tkir bo‘lib, muammoni ravon yozishi, ravon yechishi anglashiladi. “Tab’ida xeyli diqqat bor” deb yozar ekan, N. shoir qobiliyatida g‘oyat noziklik borligini qayd etadi. “Tab’i sofiy va tafakkuri barcha diqqatlarg‘a vofiy” jumlasida shoirning pok tabiatli va fikr yuritishda noziklik yetuk darajada degan ma’no bor.

Ko‘rinadiki, N.da T. tushunchasi turli ma’noda keladi va asos e’tibori ijodkor qobiliyati va tabiatiga aloqador xususiyatlarni anglatadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Саж-жодий. Фарҳанги истилоҳот ва таъбироти ирфоний. – Теҳрон, 1379 (ҳ.ш.); Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005.*

M.A.

TAVAJJUH (ar.) – 1. Yuzlanish, yuzni bir kishiga yoki bir tomonga qaratish; umid b-n qarash; 2. Tasavvufda Shayxning (pirning) Haq taologa, muridning murshidga yuzlanishi, ko‘nglini unga bog‘lashi; Allohga yuz burmoq, yo‘nalmoq yoki tushunchani Allohga to‘liq tobe aylamoqdir. Naqshbandiylikda muhabbat b-n bog‘lanishning bir shakli. Murid pirning ruhoniyatiga muhabbat yo‘li b-n bog‘lanadi, T. asnosida shunday bir istig‘roq (tavhid dengiziga sho‘ng‘ish va g‘arq bo‘lish) holiga o‘tadiki, bashariy va moddiy borlig‘idan xabardor bo‘lmaydi. Bu holatda pirning ruhoniyati muridning botinida faoliyatga kirishib, uning bashariy sifatlarini yo‘qotadi, tadrijan (astasekin) murid murshidining ruhoniy sifatlari b-n sifatlanadi. Pirning qalbidan qalbiga ilohiy nurning, fayzning o‘tayotganini his qiladi. Buni boshqacha nom b-n “Robitayi qalb” ham deydilar.

N. “M.Q.” asarida T. haqida alohida to‘xtalib, jumladan, shunday deydi: “Tavajjuh Haq subhonahu taolag‘a yuzlanmakdur va ul yon aylanmoqdur. Va xalqdin taalluq torin uzub anga ulanmoqdur. Jami’i orzudin chiqmoqki, Haqning g‘ayrig‘a aylandurg‘ay va mosivolloh ishtig‘olig‘a chirmondurg‘ay. Andoqkim, dunyo va oxirat saodatin arza qilsalar va siddiqlar va payg‘ambarlar marotibin jilva bersalar, solik ul yon nazar o‘qin otmag‘ay va ko‘ngliga alarning raddu qabulin mutlaqo yo‘latmag‘ay. Agar tavajjuhda yuziga o‘qlar kelsa, ko‘z yummoqni unutqay, agar bir ko‘zini ul o‘qlar zoye’ qilsa, yana birni ilgari tutqay...”

N. bunday fikrlarini g‘azallarda ham davom ettiradi: U bir baytida solik agar “mahvi shuhud” (Haqni, haqiqatni mushohada qilish) martabasiga yetgan bo‘lsa, agar uning huzuriga Xizr b-n Masih kelsa ham, T.idan qaytmasligini ta’kidlaydi:

Soliki foniy tavajjuhdin taraddud aylamas,
Yetsalar mahvi shuhud bo‘lg‘an zamon Xizr-u Masih.

Jumladan, Bahouddin Naqshband hazratlarining T. haqida quyidagi so‘zlari keltiriladi: “Hazrat Xoja Bahouddin Muhammad Buxoriy alma’ruf Naqshband qaddasallohu taolo arvohhum vaqtiki, o‘z mabodiyi ahvol-u sulukidin hikoyat ayturlar ermish va mashoyixi kibor arvohig‘a o‘z tavajjuhlarining asarin bayon qilur ermish. Der ermishlarki, har qachon qudvat ul-avliyo Xoja Muhammad Ali Hakim Tirmiziy ruhig‘a tavajjuh voqe’ bo‘lur erdi, ul tavajjuh asari mahzi besifatlig‘ zuhuri erdi va har necha ul tavajjuhda sayr voqe’ bo‘lur erdi, hech asare va garde va sifate mutolaa tushmas erdi”.

Ma’lum bo‘ladiki, T. muridning ixlos va muhabbatiga ko‘ra, botiniy ahvolini o‘zgartiradigan, taraqqiy etishiga va maqsad sari harakat qilishiga yo‘l ochadigan bir holatdir.

Mutafakkir shoir asarlarida T. so‘zining lug‘aviy ma’nolaridan ham keng istifoda etadi: yuzlanmoq, azm qilmoq ma’nosida:

Har yonki tavajjuh etti – yetti,
Andoqki kerak takallum etti.

Quyidagi baytda esa: “yo‘nalmoq, otlanmoq; yo‘lga tushmoq” mazmunida qo‘llangan:

Shimol ahlin ehsong‘a g‘arq aylabon,
Tavajjuh qilib azmi Sharq aylabon.

“Tikilib qaramoq” ma’nosida:

Yuzungga chun tavajjuh ayladim, qoldi qaro qayg‘u,
Keyin tushkan kibi soya ko‘rung‘ach mehr o‘trudin.

Tasavvufda, shuningdek, N. asarlarida ham ayrim so‘zlar so‘fiyona mazmunda qo‘llanganda T. b-n bog‘liq ma’nolarni bildirib keladi. M-n, qad – vahdat olamiga T. etish u-n qoyim bo‘lmoqlikni anglatsa, qomat – yuqori olamga T. qilishni bildiradi. Nazar – mavjudot haqiqatlariga T. va iltifotni anglatadi. Va yana Haq yo‘lidagi solikka ilohiy iltifotning etishi; shuningdek, bandaning Haqqa T.dir. Savmaa – ibodatxona. Tasavvufiy istilohda dil T. qiladigan dargoh, maqomdir. (Shuningdek, tafrid va tajrid maqomi. Yana mosivalloh (Allohdan boshqasi)dan aloqalarni uzishga ham aytiladi) va h.k.

Ko‘rib o‘tganimizdek, N. T.ning lug‘aviy va tasavvufiy ma’nolaridan mahorat b-n foydalangan.

Ad.: *Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4-жилдлик, 3-жилд. – Т., 1984.*

Z.R.

TAVAKKUL (ar. – umid bog‘lash, ishonish) – tasavvufda Allohga ishonish, unga suyanish, hamma narsani unga havola qilish kabi ma’nolarni bildiradi. Birovga ishonish tavakkuldir, faqat omonat jonni topshirishga loyiq zot bu Yaratganning o‘zidir. Zero Kitobullohda shunday eslatiladi: “Bas, siz ulardan yuz o‘girib, Allohga tavakkul qiling. Allohning o‘zi yetarli vakildir (Niso: 81). T. – tariqat maqomi bo‘lib, Alloh taologa tayangan holda, to‘la ishonch va e’tiqod b-n o‘zini Yaratganning ixtiyoriga topshirish. Haqdan umid qilib, xalqning qo‘lidagi narsaga ko‘z tikmaslik. N. “M.Q.”da T. ta’rifi va mohiyatiga keng to‘xtaladi: “Tavakkul Haq yo‘lida vosita asbobin raf’ qilmoqdur va vasila hijobin daf’ qilmoq... Tavakkul ahlikim, maqsud vodiysig‘a qadam qo‘yubdurlar, yo‘l zodi Haq xoni ehsonidin bilibdurlar... Andoqki, sening nasibangni yana birov yemas, aning ham nasibini sen yemak mumkin emas. Sening ro‘zing sangadur, aning qismati angadur. Tilamasang ham yetkurur, yemasang ham yedirur. “M.Q.”ning “Tavakkul zikrida” bobida Shayx Ibrohim Sitnabah va muridi hikoyat keltiriladi.

N. lirik merosida ham T.ga alohida e‘tibor berilgan:

Emas moni’ fano yo‘lig‘a foqa,
Kerak rahravg‘a zodi rah tavakkul.

N. dostonlari T. b-n bog‘liq qarashlar qahramonlarning ma’naviy holiga uygun tarzda ifoda etilgan. Zero, Qur’oni Karimning bir necha oyatlarida T. mo‘minlikdan ekanligi ogohlantirilgan: “Muso u (iymon keltirgan kishilarga) dedi: “Ey qavmim, agar Allohga iymon keltirar ekansizlar, demak, musulmon bo‘lsangizlar, Uning o‘zigagina suyaninglar – tavakkul qilinglar!” (Yunus: 84). Shu bois N. Farhodning qahramonona sarguzashtlarini:

Chinori tebratib ilgini har yon
Ki, ey kirgan kishi, Tengri uchun yon!
Ul aylab Haq taolog‘a tavakkul,
Bu besha ichra surdi betaammul, -

deya ta’riflaydi. “H.A.” dostonining Badiuzzamonga bag‘ishlangan bobida esa shahzodaga N. shunday o‘git beradi:

Garchi tavakkulsiz erur azm sust,
Mashvarasiz qilma tavakkul durust.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилд-*

лик, 10-жилд. – Т., 2011; Фаридиддин Аттор. Тазкират ул-авлиё. – Т., 1997; Сажжодий. Фарҳанги истильоҳот ва таъбироти ирфоний. – Теҳрон, 1379 (ҳ.ш.); Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005; Комилов Н. Тасаввуф. – Т., 1996; Калободий. Тасаввуф. – Т., 2004.

I.H., Z.R.

“TAVAKKULNI ULKIM...” – N.ning “B.B.” devoniga kiritilgan qit’asi:

Tavakkulni ulkim qo‘yub xotiriga,
Tushar shox oldinda qulluq havosi.

Nasibi aning bir ayoq osh erur bas,
Agar ganji Qorun erur muddaosi.

Biravkim, bo‘lur bir ayoq osh uchun qul,
Yuziga kerakdur qazonning qarosi.

Ma’lumki, tavakkul – Xudoga umid bog‘lash, Uning ehsonlariga ishonish. Xudoning marhamatiga inonib, ish yurituvchilar tavakkalchilardir. Haqiqiy tavakkalchilar u-n qat’iyat, mardlik, aytgan gapidan qaytmaslik, e’tiqod mustahkamligi singari fazilatlar xos bo‘lgan. Ular Yaratganning o‘zini yagona rahbar va madadkor deb hisoblashgan. Shu boisdan bunday kishilar, kimligidan qat’i nazar, inson qiyofasidagi hech qaysi “ma’budcha”larga bo‘ysunmaganlar. Lekin odam farzandiga xos riyokorlik bunda ham o‘z kuchini ko‘rsatgan. Aks holda hazrat N.ning ushbu qit’asi yozilmagan bo‘lar edi. Qit’aning ilk baytini o‘qishimiz b-n ko‘z o‘ngimizda ikki qiyofali bir kimsa namoyon bo‘ladi. Tashqaridan qaralganda, bu kimsa tavakkalchi. Lekin aslida u xushomad bandasi, nafs u-n o‘zining ichki haqiqatini sotuvchi. Bobomiz Xudoga ishonchni insonning o‘z-o‘ziga ishonchi b-n qariyb teng qo‘yadilar. Qit’ada qoralanayotgan kimsa, avvalo, o‘ziga inonmaydi. Demakki, uning tavakkalchiligi yolg‘on. Shuning u-n u tavakkalni niqob qilib, podshoh oldida qulluq etadi. Hazrat N. mana shuni kechirolmaydi. Ulug‘ shoirni shu buqalamunlik qahrlantirgan. She’r davomida bu ikkiyuzlamachilikning ildizi ravshanlashadi. Gap xushomad va qulluqchilik fojiasi to‘g‘risida. Odatda, “qulluq havosi”ga tobe kimsalarning ko‘pchiligida qorin va martaba tashvishidan yuqoriroq ilinj bo‘lmaydi.

Qorun – benihoyat boylikka erishgan kishining nomi. N. “shoh ollinda qulluq qilgan riyokorning muddaosi o‘sha Qorun xazinasi bo‘lgani bilan uning nasibasi bir kosa osh” ekanligini bejiz ta’kidlamagan. Chunki qulluq va xushomadning zamirida qanday katta da’vo yashirinmasin, asl mohiyatda u qorin u-n qadr va qanoatni yerga qorish demakdir. Buni o‘z nomi b-n yuzqoralik deb atamoq lozim. Hazrat N. ham bir kosa osh u-n o‘zini qullikka mahkum etgan nokasning basharasi el nazaridan yashirin qolmasligini o‘ylagan bo‘lsa kerakki:

Birovkim, bo‘lurbir ayoq osh uchun qul,
Yuziga kerakdur qazonning qarosi,–

deya hukm chiqargan. Shubhasiz, bu adolatli hukmdir.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005; Ҳаққул И. Касби камол ўзни танишдир. – Т., 2021.*

I.H.

TAVBA – lug‘atda qaytish, nimanidir bas qilish, to‘xtatish. Shar’iy istiloh sifatida T. – insonning qilgan gunohlaridan pushaymonligi, gunohlarining kechirilishini Tangridan iltijo qilib so‘rashi va Haq yo‘liga qadam tashlashi. N. tariqatga kiruvchi soliklarning “avvalgi ishlari tavbadur”, deb ta’kidlaydi. Zero. T. sayr-u sulukdagi yettita ma’naviy maqomning avvalgisidir, ruhning bedorligi, zulmatdan nurga bo‘lgan intilishidir. Tasavvuf manbalarida T.ning shartlari, darajalari va arkonlari borligi ham aytiladi. Alloh ismlari ora-

sida Tavvob (tavba qabul qiluvchi) ismi ham bor. Qur'oni Karimning bir qator oyatlarida va hadisi shariflarda tavba qilishga, Haq rahmatidan noumid bo‘lmaslikka buyurilgan. Faqat shirkning kechirilmasligi aytilgan. Muhammad (s.a.v.)ning: "Har kuni 70 marta tavba qilaman", – degan mashhur hadislari ummatlarini doimo tavba qilib yurishga undagan.

N. bir qator asarlarida T. va uning inson hayotidagi ahamiyati, foydalari haqida gapiradi. U "N.M."da tasavvufga kirishning, so‘fiy bo‘lishning avvalgi sharti T.dir deydi. Abubakr bin Yazdonyor Urmaviyning – "kimki tavba qilsa-yu gunohni tark etmasa, Alloh taolo uni tavba qilishdan va o‘ziga qaytishdan mahrum qilib qo‘yadi" hamda Ahmad Xuzravayh Balxiyning – "tavba – dil sofligi bilan Allohga qaytishdir", degan hikmatli so‘zlarini keltiradi. N.ning yozishicha, Habib A'jamiy boshida boy, sudxo‘r va xasis odam bo‘lgan**.** Bir kuni xotini bir qozon ovqat pishiradi. Shunda bir tilanchi kelib, Alloh u-n biror narsa ber, deydi. Habib "taom oz, sanga yetmaydi" deb, uni quvib soladi. Xotini taomni suzmoqchi bo‘lib qopqog‘ini ko‘tarib ko‘rsa, butunlay qonga aylanib qolgan ekan. Shunda eriga "tilanchiga qo‘pollik qilganing uchun shunday bo‘ldi" deb ta'na qiladi. Bu voqeadan Habibning holati o‘zgarib, barcha yomon ishlariga tavba qiladi, Hasan Basriyga murid tushib, o‘z davrining yetuk shayxiga aylanadi. N. shu asarida Ataba bin G‘ulom, Abdulloh ibn Muborak, Abubakr Shibliy kabi shayxlarning ham T. qilib, suluk yo‘liga kirishlarining sabablarini tushuntirib o‘tadi.

Inson faqat katta gunohlari u-n emas, qaysidir nomaqbul ishidan yoki yomon fe'lidan ham T. qilishi mumkin. N. "M.N."da yozishicha, Mavlono Yaqiniy "oxir damda beadabona so‘zlaridan tavba qilib ahli salohlar" qatoriga kirgan. Mavlono Sayfiy hushyorlik payti yaxshi odam, ammo "sarxushlikda" "rasvo" odam bo‘lgan, oxir bu holatidan T. qilgan, Mavlono Muhammad Badaxshiy "mast yo maxmur bosh va oyoqyalang ko‘y va ko‘cha va bozorda" yuradigan bo‘lgan. "Hodiyi tavfiq tavba nasib qilib", uni to‘g‘ri yo‘lga boshlagan. Mavlono Muin Voiz "bir qatla Hazrat Amir ul-mo‘minin Alining imoni taqlidiy ekandur", degani u-n "ul hazratning ruhidin g‘arib siyosat va shikanjalar ko‘rgan". Darhol T. qilgani u-n qutulgan. Mavlono Muhammad Xurosoniy beadab, behayo va andishasiz odam bo‘lgan. Va "Hodiyi tavfiq " (Alloh) unga yo‘l ko‘rsatib, hazrat Mavlono Muhammad Tabodgoniy (rahmatulloh) xizmatiga kirgan. N. aytadiki, "Ul buzurgvor ilgida tavba qilib, sufiya odob va tariyqiga mashg‘ul bo‘ldi va "arbai'n"lar o‘lturub, derlarkim, kushoyishlar topti va yayoq (yayov), soyim ud-dahr (doimiy ro‘zador holda) muborak safarin qilib ul davlatqa musharraf ham bo‘lgan".

T.ning bir necha shartlari bor. Asosiy sharti uni buzmaslikdir. N. tanbehlarining birida "Nafsdin sanga zulm yetsa, nadomat eshikin och va Tengri panohiga qoch. Va tavba etokiga ilik ur. Ul tavba ustida mardona tur", deydi. Shoir ko‘z yosh, T. suvi b-n botinni poklashga chaqirar ekan, subutsiz va soxta tavbakorlikni tanqid qiladi:

Gar qilsa kishi qilib gunohe, tavba,
Ul jurmg‘a bo‘lsa uzrxohi tavba.
Qilmoq necha goh jurm-u gohi tavba,
Bu jurm ila tavbadin, Ilohi, tavba.

N. "M.Q."da "Tavba zikrida" alohida to‘xtalgan va T.ning butun mazmun-mohiyatini ochib bergan. "Haqiqiy tavba, deydi Shoir, yomon ishlarining oqibatidan ogoh bo‘lmoq va tavfiq yor bo‘lib, u fe'llardan saqlanmoqdir. Tavba gunohkor bandaning ko‘ngil ko‘zgusini isyon zangidan aritadi va zorlanish musqili (sayqal beruvchisi) bilan ul ko‘zgu yuzini yoritadi. Tavba tufayli inson sarkashlik g‘aflatidan seskanadi va bashariyat uyqusidan uyg‘onadi. Inson buzuq ishlaridan, yaramas qiliqlaridan, alamli ahvollaridan, kerakmas da'volaridan, maxfiy ishlaridan, nafsi ammoraning fasodlaridan, ruhga yetgan chirkinliklardan ogoh bo‘ladi, ajablanadi, o‘zgaradi, nadomat chekadi... Lekin N. haqiqiy T. Allohning inoyati b-n bo‘lishini, inson biror sabab va vosita b-n haqiqiy T. qilishini alohida ta'kidlab o‘tadi.

Bunga Shayx Abdulloh Muborak tavbasini misol qilib keltiradi. N. T.ning qariganda yanada ahamiyatli ekani, ko‘z yosh to‘kib, T. qilish va uni buzmaslik masalasiga alohida ahamiyat beradi. Aksincha, tavba soxta va maqbul bo‘lmaydi.

N. T. tushunchasi orqali insonlarni o‘zini taftish qilishga, botinan poklanishga, o‘z oqibati va oxirati haqida qayg‘urishga da’vat qiladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Саййид Жаъфар Сажжодий. Фарҳанги истилоҳот ва таъбироти ирфоний. – Теҳрон, 1370 (ҳ.-ш); Mehmet Ildirar. Tasavvuf va tavba. – Istanbul, 1995.*

S.R.

TAVZE’ (ar. – ulashish, tarqatish, taqsimlash) – baytda ohangdoshlikni yuzaga keltirish maqsadida bir xil tovushlarni takrorlashga asoslangan lafziy san’at. Bunda shoir o‘z fikrini jarangdor va ta’sirchan ifodalash u-n bir xil tovushga ega bo‘lgan so‘zlardan foydalanadi. Bir necha bor takrorlanuvchi tovushlar she’rga o‘ziga xos ohang va musiqiylik bag‘ishlaydi. M-n:

Oshiq o‘ldum, bilmadim, yor o‘zgalarga yor emish,
Alloh-Alloh, ishq aro mundoq balolar bor emish.

Baytda *“o”* unlisining o‘n bir marta takrorlanishi, buning ustiga, misralarning bir xil tovush b-n boshlanishi tufayli u alohida jarangdorlik kasb etadi.

T. quruq shaklbozlik bo‘lmay, uning sara namunalarida takrorlanayotgan tovushlar mazmun b-n uyg‘unlashib, uning ta’sir kuchini oshiradi. M-n, quyidagi baytda *“j”* tovushining takrori ham unga ohangdoshlik baxsh etish, ham ifodalanayotgan mazmunining ta’sirchanligini oshirish, ham o‘quvchi e’tiborini o‘ziga tortishga xizmat qilgan:

Ganja ganjurikim, chekib ko‘p ranj,
Qo‘ymish erdi jahonda besh ganj.

Mana bu baytda esa *“i”* va *“sh”* tovushlari takrori baytga alohida jarangdorlik va xushohanglik bag‘ishlagan:

Ulcha men qildim, aylagaymu kishi!
Bu ish ermas edi kishining ishi.

Arab yozuvida qisqa unlilar aks etmagani unmi, T.da faqat undosh tovushlar takrorlanishi aytiladi. Holbuki, misollardan ko‘rinib turganidek, unlilarning ohangdorlikni ta’minlashdagi xizmati oz emas.

N. ijodida, xususan, “X.” dostonlarida “Dilorom-u Diloro-yu Diloso”, “Pariro‘-yu Parichehr-u Parizod” kabi bir xil tovushlar b-n boshlanadigan misra va baytlar ham ko‘p uchraydi. Bu hol she’rlarining ohangdorligi va ta’sirchanligini oshirishida shoirning tovushlar takroridan ham samarali foydalanganidan darak beradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-жилдлар. – Т., 2011; Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Т., 1979; Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т., 2006; Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2010.*

E.O.

TAVIL (ar. – uzun) – fau(v)lun (1-hijo qisqa, qolganlari cho‘ziq – V – –) va mafoiylun (1-hijo qisqa, qolganlari uzun – V – – –) asllarining ketma-ket kelishiga asoslangan bahr (fau(v)lun mafoiylun (fau(v)lun mafoiylun – V – – / V – – – / V – – / V – – –). Arab she’riyatidagi eng uzun vazn bo‘lgani u-n shunday nomlangan. T. bahri arab nazmiga xos bahr bo‘lib, forsiy va turkiy she’riyatda, deyarli, qo‘llanmagan. N. “M.A.”da bu bahrga 1, Bobur esa “Muxtasar”da 6 vazn keltiradi. Faqat ayrim shoirlargina mazkur bahr vaznlarida she’r yozib ko‘rish b-n uning ohang imkoniyatlarini sinovdan o‘tkazganlar. Shulardan biri N. bo‘lib, “X.M.”da uning qalamiga mansub T.i musammani solim vaznida yaratilgan 3 g‘azalga duch kelamiz:

Yuzungdek qamar yo‘qtur, qadingdek shajar yo‘qtur,
Shajar bo‘lsa ham anda, labingdek samar yo‘qtur.

T.i musammani solim o‘z xususiyatlari b-n hazaji musammani axrab va hazaji musammani axtar vaznlariga yaqin turishi jihatidan o‘zbek she’riyatida uning imkoniyatlaridan samarali foydalanish mumkin.

Ad.: *Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Бобур. Мухтасар. – Т., 1971; Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т., 1998; Ҳожиаҳмедов А. Навоий арузи нафосати. – Т., 2006; Юсупова Д. Аруз ва муттоз поэтикага кириш. – Т., 2020.*

E.O.

TAVOZU’ – (ar. – kamtarlik, muloyimlik, o‘zini xoksor tutish va kibrdan uzoq turish), kibr-u havo va manmanlik T.ning ziddi sanaladi. N. ijodida T. ko‘p o‘rinlarda adab b-n yonma-yon qo‘llangan. Adab inson axloqida T.ning sifati o‘laroq namoyon bo‘lgan.

Buki tavoze’durur oti aning,
Yoki adab keldi sifoti aning.

“M.Q.”ning oltinchi bobi T. va adab zikriga bag‘ishlangan. “Tavozu’ xalqni kishi muhabbatig‘a shefta qilur va ulusni foil mavaddatig‘a firifta qilur. Do‘stlug‘ gulshanida nazorat gullari ochar va ul gulshandin uns va ulfat bazmida turluk gullar sochar. Mutakabbir dushmang‘a muloyamat sari yo‘l ko‘rguzur va mu’jib xasm xotirig‘a insoniyat zavqin o‘lturg‘uzar. Takrori hayosiz muddaiyni uyat sarhaddig‘a boshqarur va te’dodi insofiz aduvni yamonlikdin o‘tkarur. Agarchi borcha eldin xo‘bdur va bari xaloyiqdin marg‘ub, ammo sarafrozlardin xo‘broqdur va beniyozlardin marg‘ubroq. Abnoyi jinsdin bir-biriga mustahsan, akobirdin asog‘irg‘a ahsan. Saxo qilmay elni shod qilur va ato ko‘rguzmay kishini g‘amdin ozod qilur”, – deydi N.

T.ning inson ruhiy kamolotidagi ahamiyati beqiyos bo‘lib, qalbga yorug‘lik, fe’l-atvorda ulug‘lik, axloqda yetuklikka sabablardan biri sanaladi. Insonlarning bir-biriga bo‘lgan muhabbatini oshirib, xalqning duosi va maqtoviga musharraf qiladi. N. “H.A.”da T. haqida shunday deydi:

Chunki tavoze’g‘a xam o‘ldi hilol,
Bo‘ldi fuzunroq anga har kun kamol.

“Yo”g‘a tavoze’ sifati berdi dast,
Qadr ila mushaf uza topti nishast.

Charx tavoze’ uza to xam durur,
Tobii amri bori olam durur.

“M.Q.”da T.dan bahs yuritar ekan, Xusrav Parvezning tojidagi eng qimmatbaho gavharning ov paytida yerga tushib yo‘qolgani haqida hikoyat keltiradi. Unga ko‘ra, xaloyiqqa jar solinib, ushbu noyob gavharni topganga behisob hadyalar va’da qilinadi. Butun shahar ahli noyob javharni topish ilinjida yurganda, safarda bir-biriga hamroh bo‘lgan Muqbil va Mudbir ham ushbu xaloyiqni boshlab chiqqan boshliqqa yo‘liqib qoladilar. Mudbir takabburlik b-n boshliqqa boqmay, beparvo o‘tib ketar ekan, Muqbil boshliqqa adab va T. b-n bosh egadi va oyog‘i ostidagi o‘sha gavharga ko‘zi tushib, uni o‘pib boshliqqa tutqazadi. Bundan xabar topgan Xusrav xushhol va xursand bo‘lib, sovg‘a, suyunchini ortig‘i b-n in’om etadi.

“*Mutakabbir kezibon shahrda xor-u mardud,*
Mutavozi’ni g‘aniy ayladi durri maqsud”, –

deya T. insonni ulug‘ martaba va inoyatga musharraf qilishini bayon qiladi.

N. nazdida, T.li kishi – ulug‘ kishidir:
Har kimki tavozu’ amri komi bo‘lg‘ay,
Ul fe’l ila xalq aro kiromiy bo‘lg‘ay.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер*

Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Назм ул-жавоҳир. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.

E.Q.

“TAVOZO‘ YAXSHI, AMMO...” – N.ning “N.Sh.” devonidan o‘rin olgan qit’asi:

Tavozo‘ yaxshi, ammo yaxshiroqdur
Agar da’b etsa oni ahli davlat.

Erur ham afv xo‘b-u xo‘broq ul,
Ki zohir bo‘lg‘oy el topqonda qudrat.

Ato ham turfa ishdur, turfaroq bil,
Agar yo‘qdur oning yonida minnat,

Hakim insonni komil debtur oni
Ki zotida bo‘lg‘ay bu necha xislat.

N. qit’ada tavoze’ning yaxshiligini aytish b-n kifoyalanmasdan, uni odatga aylantirmoqqa undaganlar. Lekin bu gap ko‘proq “ahli davlat”ga tegishli qilib so‘zlangan. Chunki ularning aksariyatida tavoze yetishmaydi. Afv etish – kechirish. Kechirimli bo‘lmoq – qudrat kasb etmoq. Hazrat N. odamiylik qudrati tufayli amalga oshiriladigan afvni yuksak baholaydilar:

Erur ham avf xo‘b-u xo‘broq ul,
Ki zohir bo‘lg‘ay el topqanda qudrat.

Ato so‘zining ikkinchi ma’nosi muruvvat qilmoq in’om-ehson bermoq. Lekin muruvvat va himmatning yonida minnat sezilsa – bu muruvvatsizlikdan ham yomondir. Shuning uchun ham N.:

Ato ham turfa ishdur, turfaroq bil,
Agar yo‘qtur aning yonida minnat, –

deb nasihat qilganlar.

Qayd etilgan “bu necha xislat” odamiylik u-n zarur fazilatlardir. Kimning zoti shu fazilatlardan mahrum emas ekan, faylasuf hukmicha, o‘sha odam insoni komildur:

Hakim insoni komil debtur oni,
Ki zotida bo‘lg‘ay bu necha xislat.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик, 3-жилд. – Т., 1984; Ҳаққул И. Касби камол ўзни танишдир. – Т., 2021.*

I.H.

TAVORUD (ar.) – 1. Izma-iz kelish, bir joyga birga tushish. 2. Adabiyotshunoslikda: birbiridan bexabar holda ikki shoirning bir mazmunni nazmga solishi yoki ikki shoir misra va baytlarining tasodifan to‘g‘ri kelib qolishi. M-n, N. “M.N.” tazkirasida temuriy shahzodalardan Kichik Mirzoning bir ruboiysi Abdurahmon Jomiyniki b-n T. bo‘lganligi haqida yozadi va chindan ham shunday bo‘lsa, bu ulug‘ baxt-ku, deydi. Mana o‘sha ruboiy:

Umre basaloh mesutudam xudro,
Dar shevayi zuhd menamudam xudro.
Chun ishq omad, kadom zuhd-u chi saloh?
Alminnatulillahki, ozmudam xudro.

Tarj.: Umr bo‘yi o‘zimni yaxshilikda ta’rif etar, taqvodor qilib ko‘rsatar edim, ishq keldi-yu, na yaxshilik qoldi, na taqvo, Xudoga shukrki, shu tariqa o‘zimni sinovdan o‘tkazib, aslida kimligimni bilib oldim.

Husayn Voiz Koshifiyning yozishicha, T. ma’noda bo‘ladi, so‘zda emas. Ya’ni ma’no mushtarak chiqib qolishi mumkin, so‘zlar aynan mos kelishi qiyin.

T. she’riy illatlardan sanalsa-da, u adabiy o‘g‘rilik hisoblanmaydi. Chunki adabiy o‘g‘rilik iste’dodsizlik va taqlid mahsuli bo‘lsa, T. bir-biridan bexabar holda yuz beradi.

T.ning sodir bo‘lishiga, asosan, 2 omilni sabab qilib ko‘rsatadilar: 1) devonlar mutolaasi va she’r mualliflarning so‘z ustalari b-n bevosita aloqasi natijasida o‘qigan yoki eshitgan she’ri o‘zi bilmagan holda ba’zida yangi she’r tarzida jilva qiladi; 2) boshqa shoirlarning asarlariga tatabbu’ yoki payravlik ta’sirida. Bundan tashqari, o‘zaro hamfikrlik, hammaslaklik, uslub yaqinligi, qarashlar mushtarakligi ham T.ga sabab bo‘lishi mumkin.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик, 3-жилд. – Т., 1984; Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. –Д., 1987; Фарҳанги забони тожики. Жилд 2. – М., 1969; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилод 3. – Д., 2004.*

E.O.

TAVR (ar.) – tarz, surat; tartib, ravish; usul, uslub. “Devoni Foniy”da N.ning ulug‘ salaflariga ko‘plab tatabbu’lari b-n birga ularga ergashib, ular uslubida yozgan qator g‘azallari ham borki, ularga shoir “Dar tavri Xoja” (“Hofiz Sheroziy uslubida”), “Dar tavri Maxdum” (“Abdurahmon Jomiy uslubida”), “Dar tavri Shayx” (“Sa’diy Sheroziy usulida”), “Dar tavri Mir” “(“Amir Xusrav Dehlaviy uslubida”), “Dar tavri Shayx Kamol” (“Kamol Xo‘jandiy uslubida”), “Dar hamon tavr” (“O‘sha uslubda”), “Tatabbu’i Mir dar tavri Xoja” (“Hofiz uslubida Xusravga tatabbu’”), “Tatabbu’i Shayx dar tavri Maxdum” (“Jomiy uslubida Sa’diyga tatabbu’”), “Tatabbu’i Maxdum dar tavri Xoja” (“Hofiz uslubida Jomiyga tatabbu’”) kabi sarlavhalar qo‘ygan. Jumladan, devonda Hofiz Sheroziy tavrida – 25 ta, Abdurahmon Jomiy tavrida – ta 10 g‘azal mavjud va h.k.

T.ning tatabbu’dan farqi shundaki, tatabbu’ muayyan g‘azalga javob bo‘lsa, T. biror-bir aniq g‘azal yo‘lida emas, balki umuman u yoki bu shoir uslubida yoziladi. M-n, Foniyning mana bu g‘azali Hofiz g‘azaliga tatabbu’ bo‘lmay, faqat o‘sha usulda yozilgandir:

Manu mayli alifi qomati on hursirisht,
Bar saram chunki qazo dar azal in harf navisht.

Tarj.: Mening ko‘nglimda o‘sha hurga o‘xshagan yorning alifday qomati orzusi. Chunki azalda taqdir mening manglayimga shundan boshqa harf (ya’ni alif – yor qomati, demakki mahbuba muhabbati) yozmadi.

Aybi rindon makun, ey zohidi pokizasirisht,
Ki gunohi digaron bar tu naxohand navisht.

Tarj.: Ey pokizalik da’vosidagi zohid, rind ahlining aybini qilmaki, birovning gunohini senga yozmaydilar.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Девони Фоний. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик, 3-жилд. – Т., 1984.*

E.O.

TAVROT – ibroniy tilida ta’lim va shariat ma’nosini anglatib, iudaizm dinining muqaddas kitobi. N. asarlarida, xususan, “T.A.H.”da Zabur, Injil, Qur’on kabi samoviy kitoblar qatorida tilga olingan. Ulug‘ shoir lirikasida esa T. ko‘proq talmeh san’atini hosil qiladi.

Qur’onda T. borasida bir qancha oyatlar bor. Qur’onga ko‘ra, Injildagi kabi T.da ham yahudiylardan bo‘lmagan Ahmad ismli payg‘ambarning dunyoga kelishi haqida aytilgan.

Umuman, dunyo dinlari tarixida T. boshqa samoviy kitoblar qatorida zikr qilinadi. Chunki ishonchli manbalarda T. Muso (a.s.)ga tushgani bilan bog‘liq lavhalar talaygina. N. ham T.ni, aso-

san, “T.A.H.” asarining “Muso va Xorun (a.s.)” nomli zikrida qayta-qayta tilga olgan. Muso (a.s.) Tur tog‘ida Allohga tilsiz takallum qilgan edi, unga o‘n lavh yuborildi. Unda shariat ahkomi yozilgandi. Keyin ukasi Horun b-n Isroil eli o‘rtasida murakkab vaziyat paydo bo‘ldi. Muso (a.s.)ning duosi b-n qatldan qo‘lini tortdi. Shunda Muso (a.s.) yana Tur tog‘iga borib munojot qildi. Alloh unga Jabroil (a.s.) orqali samoviy kitoblardan biri T.ni nozil qildi. Bu haqda N. qisqa tarzda shunday ma’lumot bergan: “Yana Muso (a.s.) borib munojot qildi, “Tavrot” nozil bo‘ldi. Va ul qirq mujallad erdi”.

Muallif fikrini davom qilib, sandiqush-shahoda to‘g‘risidagi xabar ham T. u-n bitilganini yozadi. Chunonchi: “Muso (a.s.)ning yoshi yuz yigirmiga yetib erdi, bani Isroilni hozir qilib, alarg‘a nasihatlar qildi. Va kotiblar o‘lturtub, “Tavrot”ni mutaaddid bitib va o‘zi birni muborak xati bila bitib, Jabrail (a.s.) bila tashih qilib, sandiqush-shahodag‘a soldi. Va o‘zgalarni tashih qilg‘ondin so‘ngra har qavmig‘a birin berdi. Va aning tilovati va ahkomining ijrosig‘a vasiyat qildi. Va o‘z xilofatini Yuvsha’ (a.s.)g‘a berib, elni anga topshurdi, eldin vasiqalar oldi.

Asarining Yuvsha’ (a.s.) zikrida esa N. uning T.ni o‘qigani va ahliga T. mutolaasini tavsiya qilgani haqida yozgan: “Va Yuvsha’ (a.s.) bu fathdin so‘ngra O’y degan shahrni ham fath qilib, elidin o‘n iki ming kofirni qatl qildi. Va ul diyorda ko‘p xalqni islomg‘a kiyurdi. Va mag‘rib zaming‘a azm qilib, ko‘p bilod olib, o‘tuz bir podshoh kuffordin o‘lturub qoytti. Va muncha g‘aroyib taqriban yeti yilda bo‘ldi. Va andin so‘ngra, yigirmi yil xalqni “Tavrot” mutolaasig‘a ta’lim qildi. Andin so‘ng qazo yetti”.

Ilyos (a.s.) zikrida ham N. Hizqil (a.s.)ning vafotidan keyin T.ni o‘qib-o‘rganish unut bo‘lgani, uning ahli yomon xatti-harakatlarga ruju’ qo‘ygani xususida to‘xtalgan: “Rivoyatdurki, Hizqil (a.s.)din so‘ngra bani Isroil orasida millat haysiyyatidin ko‘p bulgonchug‘luq voqe’ buldi. Ul nav’ki, Muso (a.s.) dini arodin chiqti va “Tavrot” ahkomi unut bo‘ldi va anvo’ butlar yasab, ul qavm butparastlig‘qa mashg‘ul bo‘ldilar va fisq va isyonlari haddin o‘tti”.

Mazkur kitobning “Zul-kifl (a.s.)” fiqrasida N. yana T.ni eslaydi va eslatmada Zul-kifl (a.s.) davrida T. ta’limiga qaytgani, unda mustaqim turgani xususida gapirib o‘tgan.

N. “T.A.H.” kitobining Uzayr (a.s.)ga bag‘ishlangan faslida T.ni ikki marta tilga olgan. Birinchi ma’lumotda T.ni Uzayr (a.s.)chalik hech kim yaxshi bilmasligini ta’kidlasa, ikkinchi ma’lumotda ham Uzayr (a.s.)ning T.ni maromiga yetkazib mutolaa qilishi xususida ma’lumot bergan.

“T.A.H.”ning Iso (a.s.)ga bag‘ishlangan zikrida samoviy kitoblardan bo‘lmish Injil Iso (a.s.) ga nozil bo‘lgani haqida to‘xtalib, T. xususida Qur’oni Karimning “Maryam” surasida nima deyilganiga diqqat qaratilgan, va aynan T. b-n bog‘liq xabarni bayon qiluvchi oyat ham darj qilingan.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; https://uz.wikipedia.org/wiki/Tavrot.*

B.R.

TAVSAN (ar.) – 1. Hali minilmagan, qo‘lga o‘rgatilmagan yosh arg‘umoq; o‘ynoqi toychoq. Bu so‘zning kuch-quvvat va qudrat ma’nosi ham mavjud. 2. Majoziy: sho‘x, asov, sarkash, qaysar.

“F.Sh.” dostonida tasvirlanishicha, Farhod o‘limidan keyin yana Shiringa og‘iz solgan Xisrav Parvez sovchilariga hamisha rad javobini berib kelgan ikki qaysar – Mehinbonu b-n Shirinni ikki T. deb atab, ularning ko‘ngliga yo‘l topib, yumshatishini so‘raydi:

Ko‘p afsunlar bila bo‘lub mulozim,
Iki tavsanni qilg‘aylar muloyim.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик, 3-жилд. – Т., 1984; Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. – Душанбе, 1987.*

M.A.

TAVSIF – (ar. – mufassal ta’rif, baho; sifatlash, maqtash) sifat; sifatlar; sifat-belgilarning bayoni, ta’rifi, tasviri degan ma’nolarni anglatadi. Adabiy termin o‘laroq yozuvchi biror voqeani, kimnidir yoki biror narsani tasvirlash u-n o‘sha obyektning eng muhim xususiyatlaridan birini ta’kidlaydigan sifatlarni keltirish san’atidir.

N. lirikasining mavzu ko‘lamini aniqlashtirib olish ma’lum ma’noda “X.M.” debochasidagi shoirning o‘z qaydlariga asoslanadi: *“Andin so‘ngra xud xotirga kelmas erdikim, bir g‘azal husn bahri g‘azolalari ta’rifida yo ishq otashkadasi sharoralari tavsifida tugatgaymen, balki bir bayt sho‘xning jamoli dilfuro‘zi bobida yo o‘z ko‘nglumning dard-u so‘zi sharhida qalam silkiga kivura olgaymen yo xayolimg‘a kechura olg‘aymen”*. Y.Is’hoqovning xulosa qilishicha, shoir g‘azallarining asosiy tiplari: *ta’rif, tavsif, madh va sharhi hol*dan iboratdir.

N.ning o‘zi esa biror narsa, hodisa yoki shaxsni maqtash, madh etish, chiroyli o‘xshatishlar, majoziy iboralar b-n ta’rif-u T.lashda tor ma’nodagi T.ga murojaat qilgan. T. mavzusi cheklangan bo‘lishiga qaramay, N. asarlarida ma’shuq yoki uning biror uzvini T.lashga bag‘ishlangan she’rlar ko‘pchilikni tashkil qiladi. M-n, “G‘.S.” devonidan olingan quyidagi g‘azalda ma’shuqdan kelgan maktubning T.lari tilga olinib, baytdan baytga xabarnomaning turli belgilari, sifatlari vasf etila boriladi:

Yordin kelmish manga bir turfa maktub, ey ko‘ngul,
Kim erur har satri, bal har lafzi marg‘ub, ey ko‘ngul.

Lafz yo‘q, har harfi jon hirzi, dag‘i har nuqtasi,
Mardumak yanglig‘ biaynih ko‘zga matlub,
ey ko‘ngul.

Ayladim tumor agar tumor etar daf’i junun,
Bu meni qilmish junun ilgida mag‘lub, ey ko‘ngul.

Safhada ermas muhabbat sharhikim, kelmish kiyib,
Hullayi kofurgun bir turfa mahbub, ey ko‘ngul.

Shuningdek, ta’rif b-n T. ko‘p o‘rinda qo‘shilib ketgan holda ko‘rinsa ham, lekin T.ning ishlatilish doirasi kengroq: uning u-n insoniy sifatlar ham, tabiat manzaralari ham, oshiq vujudini yondirgan “ishq otashkadasi sharoralari” ham obyekt bo‘la oladi.

N. she’rda T.ni istifoda etarkan, uning jamiyatdagi yoki o‘z hayotidagi o‘rni, ahamiyatiga baho berib, unga bevosita munosabatini ifodalash jarayonida ijodkorlik salohiyatini ham yaqqol namoyon etgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Зеҳний Т. Санъатҳои бадеий дар шеъри тожикий. – Душанбе, 1960; Ҳусайний А. Бадойеъ ус-санойеъ (Аруз вазни ва бадиий воситалар ҳақида). Форс тилидан А.Рустамов таржимаси. – Т., 1981; Қуронов Д. ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2013; Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Т. 1983.*

S.R.

TAVHID (Vahdat) (ar. − birlik, yagonalik) – Alloh taoloning birligi, yagonaligi. Bu tushunchaga ko‘ra, borliq yagona bir vujuddan, olamdagi barcha narsalar uning tajalliysi − namoyon bo‘lishidan iborat. Tasavvuf ahli nazdida, T. faqat Alloh taoloning yagonaliginini tan olish va unga e’tiqod qilishgina bo‘lib qolmay, balki insonning Haq tomon intilishi va u b-n birlashishga urinishini ham anglatadi. Bu jarayonni mutasavvif shoirlar quyosh va zarra, dengiz va tomchi, sham va parvona timsollari vositasida obrazli yo‘sinda ifodalaydilar: zarra quyoshga, tomchi dengizga, parvona shamga intiladi va oxir-oqibat ular qo‘shilib-birlashib ketadi, lekin ana shu intilish jarayonida ular ilohiy ishq o‘tida kimyolanadi, poklanadi. N.Komilovning yozishicha, “tavhid jismning foniy bo‘lishi va ruhning Mutlaqiyatga qo‘shilishi − vaslning yuz berishidir”. Bu maqomga erishgan orifning borlig‘i faqat Alloh muhabbati b-n to‘lib-toshadi, u dunyoga parvo etmaydi.

Mashhur so‘fiy Uvays Qaraniydan naql qilishlaricha, “vahdat shuki, ko‘ngilda Haqdan

o‘zganing fikri bo‘lmasin”. Shayx Abulqosim Qushayriyning aytishicha, “tavhid − Alloh ismi zohir bo‘lganda rasm va tabiat asarining zavol topishi, tajalliy nurlari porlaganda, begona narsalarning foniy bo‘lishi, ilohiy haqiqatlar oshkor bo‘lganda maxluqotlarning arzimasligi, zikri ulug‘ Jabborga yaqinlik mavjud bo‘lganda ag‘yorlarning ko‘rinmasligidir”. N.ning yozishicha, T.ning ma’nosini bilgan kishi uni bayon qila olmaydi, agar bayon qila olsa, demak bilmaydi:

Nuktayi tavhidni bilgan qila olmas bayon −
Kim bayon qildim desa, bilgilki, qilmaydur bilib.

N. nuqtayi nazariga ko‘ra, tavhid − nihoyatda nozik va teran ilm, uni bahs-u munozara b-n bilib bo‘lmaydi, buning uchun tilni tiyib, jonni fido qilish kerak!

Navoiy, o‘lmadi tavhid guftugo‘ bila fahm,
Magarki aylagasen tilni qat’u jonni fido.

Komil pirlar tavhid xususida so‘z borganda jim bo‘ladi, uni sharh qilganlarning barchasi esa bu borada hech nimaga erishmadilar:

Tavhid nuktasida xomush o‘ldi piri dayr,
Jam’eki sharh qildilar ani, yongildilar.

Vahdat sirini bilish u-n kishi ogoh, ya’ni komil inson huzurida ma’rifat sabog‘ini olib, fano maqomini egallashi kerak, deb xulosalaydi shoir bu boradagi fikrlarini:

Ulki, vahdat sharhin aylar, sirridin ogoh emas,
Gar fano kasb etmagan bo‘lsa, bir ogoh ollida.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Сажжодий. Фарҳанги истилоҳот ва таъбироти ирфони. – Теҳрон, 1380 (ҳ.ш.); Абдулҳусайн Зарринкўб. Жустужў дар тасаввуфи Эрон. – Душанбе, 1992; Комилов Н. Тавҳид асрори. – Т., 1999; Рустамов А. Шоирнинг биринчи ғазали // “Шарқ юлдузи”, 1987, №2; Абдуқодиров А. Тасаввуф истилоҳларининг қисқача изоҳли луғати. – Хўжанд, 1997.*

E.O.

TADBIH (ar. − ziynatlash, sayqal berish) − istiora va tashbehlar vositasida bir fikrni ifodalash orqali boshqa fikrni nazarda tutishdan iborat ma’naviy san’at. M-n, “L.M.”dan olingan quyidagi baytni ko‘rib chiqaylik:

Mushkum bu xatoda bo‘lda kofur,
Kofur ila mushkum o‘ldi benur.

Baytda shoir xatolarim tufayli mushkum kofur (oq) bo‘ldi, demoqda. Aslida esa shoir bu yerda xatolari dastidan qop-qora sochlari oppoq bo‘lganiga ishora qilmoqda.

Quyidagi baytda esa ota u durni topgach, faxrlanib ko‘p gavhar sochti, deganda uning o‘g‘illi bo‘lgani − Qays tug‘ilganiga ishora qilinmoqda:

Alqissa, atosi topqach ul dur,
Ko‘p sochti guhar, qilib tafoxur.

Mana bu baytda gul yaprog‘i bol ichra tushdi, deganda ham Qaysning beshikka belangani ko‘zda tutilmoqda:

Yotqizdilar oni mahd ichinda,
Gul yofrog‘i tushti shahd ichinda.

Ad.: *Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик, 3-жилд. – Т., 1984; Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Т., 2001.*

Y.I.

TADRIJ (ar. – darajama-daraja, asta-sekin) – she’rni boshidan oxirigacha bir mavzu, bir obraz asosiga qurishdan iborat lafziy san’at. Lekin matndagi ma’no uzviyligini ta’minlashi jihatidan u ma’lum ma’noda o‘zida ma’naviy san’at yukini ham tashiydi. Bunda g‘azal bir mavzuga bag‘ishlanib, baytma-bayt rivojlantirib boriladi yoki bir

obraz asosiga qurilib, uning xususiyatlari birma-bir ochib beriladi. Shu tariqa, tadrij g‘azaldagi ma’no uzviyligi va fikr yaxlitligini saqlashga xizmat qiladi. Holbuki, odatdagi g‘azallarda baytlar aro mazmun bog‘liqligi sezilmas darajada bo‘ladi, ba’zida esa mutlaqo bo‘lmaydi.

N. ijodida T. san’ati asosida yaratilgan qator g‘azallar mavjud – ular goh bir mavzu ifodasi, bir muammo talqini, bir obraz tahliliga bag‘ishlangan. Husayn Boyqaroning suyukli xotini Xadicha-begimning behi lutf etgani munosabati b-n yozgan g‘azali shular jumlasidandir. Unda shoir behi va oshiq ahvoli o‘rtasida o‘xshashliklar topib, butun g‘azalni shu qiyos asosida shakllantiradi:

Behi rangidek o‘lmish dardi hajringdin
manga siymo,
Dimog‘im ichra har bir tuxmi yanglig‘
donayi savdo.
Mazallat tufrog‘i sorig‘ yuzumda bordur andoqkim,
Behida gard o‘lturg‘on masallik tuk bo‘lur paydo.

Oqartib ishq boshimni,
nihon bo‘ldi sarig‘ chehram,
Momug‘ ichra behini chirmag‘on
yanglig‘ kishi amdo.

Yuzumda tig‘i hajring zaxmi har sori erur bevajh,
Behini tiyg‘ ilan chun qat, qilmoq
rasm emas qat’o.

Yuzum tufrog‘dadur har dam
qurug‘on jism ranjidin,
Behiga sarnigunluk shoxi za’fidin bo‘lur go‘yo.

Bu gulshan ichra behbud
istagan doim behi yanglig‘,
Kiyib pashminayi toat qadin ham asramoq avlo.
Navoiy gar quyosh noranjidin behrak ko‘rar,
tong yo‘q,
Behikim lutf qilmish mahdi ulyo ismat ud-dunyo.

Birinchi baytda hijron dardidan behiday rangi sarg‘aygani va ko‘nglida behi urug‘idek g‘am tuguni borligi; ikkinchi baytda xuddi behining yuzidagi gard kabi o‘zining ham yuziga xorlik g‘ubori qo‘nganligi; uchinchi baytda behini paxtaga o‘rab asraganday ishq oqartirgan boshi sariq chehrasini yashirganligi; to‘rtinchi baytda behini hech qachon pichoq b-n uzmasliklari jihatidan oshiq yuziga tig‘ urib, jarohat yetkazishning asossizligi, beshinchi baytda mevasini ko‘tarolmay behi yerga bosh qo‘ygani kabi oshiqning ham zaif jismi tufayli hamisha boshi tuproqdaligi, oltinchi baytda bu dunyoda behi kabi yaxshilik istagan kishi tukli teriga o‘ranib – jundan tikilgan xirqa kiyib, toat u-n qadini xam qilishi afzalligi, yettinchi baytda esa, nihoyat, N.ning mahdi ulyo ismat ul-dunyo, ya’ni Xadichabegim lutf etgan behini quyoshdan ham afzal ko‘rishi xususida so‘z boradi.

Ba’zi manbalarda T. voqe bo‘lishi u-n g‘azalning har bir bayti oldingi baytni yakunlagan so‘z b-n boshlanishi va bu butun g‘azal doirasida amal qilishi shart qilib qo‘yiladi. Bunda ko‘proq g‘azalning shakliy tomoni e’tiborda tutilsa-da, baytlarni o‘zaro bog‘lashi jihatidan mazmun izchilligini ta’minlash vazifasini bajaradi. Ayni jihatdan, bu ikki usul bir-birini inkor etmaydi, bil’aks biri badiiy san’at, ikkinchisi, kompozitsion usul sifatida bir maqsadga xizmat qiladi.

Y.Is’hoqov tomonidan tashbeh ul-atrof (tasbig‘), V.Rahmonov tomonidan tashbehi musalsal san’atlariga misol qilib keltirilgan mashhur “Yordin ayru ko‘ngul mulkedurur sultoni yo‘q” misrasi b-n boshlanadigan g‘azali ushbu ma’noda T. san’atiga ham namuna bo‘la oladi. “Zavraq ichra ul quyosh sayr aylamas Jayhun aro”, “Xil’atin aylabmudur ul sho‘xi siymintan qaro”, “Sochti terdin gul uza ul sarvi gulruxsor suv”, “Va’da aylab vasl jismi notavonim o‘rtama”, “Ohkim, g‘amingda gunbazi axzarni kuydurur”, “Qilg‘ali xil’atin ul sarvi gulandom qizil”, “Havo xush erdi-yu, olimda bir qadah mayi nob”, “Kirdi simobiy libos ichra yana ul gul’uzor”, “Navbahor o‘ldi-yu, ayshim gulbuni ochilmadi”, “Ko‘ngluma yor istabon mehnat kelurni bilmadim”, “Qon yutub umre jahon ahlida bir istadim“ misralari b-n boshlanadigan g‘azallari haqida ham shunday deyish mumkin.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Т., 2001; Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т., 2006; Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2010; Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т., 1976.*

E.O.

TAJALLI – jilvalanish, oshkor bo‘lish, ko‘rinish, zuhur etish. Aslida butun olamlar Allohning zotiy, fe’liy va ism T.si sifatida qaralgan:

Ey husnunga zarroti jahon ichra tajalli,
Mazhar sanga ashyo.
Sen lutf bila kavn-u makon ichra muvalli,
Olam sanga Mavlo.

Allohning koinotdagi jonli va jonsiz har zarrada zuhur etishi T. deya tushunilgan. “Jilo” asosidan paydo bo‘lgan T. hikmatini quyidagi qudsiy hadisga bog‘laydilar: “Men yashirin bir xazina edim, bilinishni istadim va meni bilsinlar deya maxluqotni yaratdim. Ular meni men-la tanidilar”. T. “kun” amri b-n bo‘ldi. Mashoyixlarga ko‘ra, ilk T. va uning sababchisi ham So‘zdir. Islom dinida ham, tasavvufda ham so‘zning muqaddas sanalishi shundan.

Tasavvuf ahliga ko‘ra, T. ikki qismdir: 1. Ruhoniy T. 2. Rabboniy T. Bu ham ikkiga ajralur: 1. Uluhiyat T. 2. Rububiyat T. Bularning biri hazrati Muhammadga, ikkinchisi Hazrati Musoga tegishli. T. haqida fikr-qarashlar turli-tumandir. “N.M.”da N. ham T. haqidagi qarashlarini quyidagicha tushuntiradi: “Abulbarakot Taqiyuddin Ali Do‘stiy Simnoniy (q.s.) Shayx Ruknuddin Alouddavlaning as’hobidindur. Bir kun Hazrat Shayx maorif so‘rarda buyurubdurlarki, modomiki solik tajalliy vaqtida surate idrok qilur, ul tajallii suvari bo‘lg‘ay va Haq taoloni ul suratdin munazzah tutmak kerak, ammo ani Haq tajalliysi bilmak kerak, andoqki Muso (a.s.) daraxtdin “albatta, men Allohmen (Qasas: 30)” deb eshitdi. Har kim desaki, daraxt Tengridur, kofir bo‘lg‘ay va har kim desa, bu so‘zni Tengri demadi, ham kofir bo‘lg‘ay. Bu suvare tajalliyni bu nav’ e’tiqod qilmoq kerak. Va ul kun Taqiyuddin Ali Do‘stiy hozir erdi. Shayx buyurdilarki, bu yil manga Ali Do‘stning voqeasi bisyor xush keldi. Va darveshlarning e’tiqodi saboti uchun aytay. Haq taolo bu yil anga bir qatla kulliy mavjudot suratida tajalliy qildi. Va ul Haq taolo tasbih-u tanzihin suvar lafzi bila andoqki Haq taolo aning tiliga joriy qilur erdi, aytur erdi. Haq (s.t.) o‘zluki bila andin so‘rdikim, meni ko‘rdung? Ul dediki, Bor Xudoyo, ko‘rmadim! Haq taolo buyurdikim, bularki ko‘rdung, ne edi? Javob berdiki, osor-u af’ol-u sifoting suvari erdi va sen barcha suratdin munazzahsen. Haq (s.t.) bu so‘zda anga sano aytti va bu ma’noni andin pisandida tutti”.

Demak, ahli ilm shahodat olamini ko‘proq Alloh taoloning fe’l va sifatlari deya qabul qilsada, ammo Allohni har qanday suratdan pok deya bilishgan. T. – doimo g‘aybdan shuhudga, zulmatdan nurga, noma’lumdan ma’lumga o‘tish, demakdir. T. solikka ba’zan jazba, ba’zan sukunat beradi. T. to‘rtga bo‘linadi: zotiy T. – ilohiy zotning zoti uchun T.si; sifot T.si – ilohiy sifatlarning banda ko‘nglida zuhur etishi; ism T.si – Haq ismlaridan birining banda dilida zohir bo‘lishi; fe’l T.si – ilohiy fe’llarning banda qalbida yuzaga kelishi. Haq taolo har lahza, har yerda turli martabalarda tajalliy etadi, ya’ni, o‘zini oshkor qiladi:

Sabur ismi bila qilsang tajalli,
Qilib Namrudg‘a yuz ming mudoro.

Ammo T.ga mazhar – qalbdir. Ko‘ngilning 7-maqomi – Muhjat ul-qalb ilohiy nurlar T.li qiladigan joy, deya qaralgan: “Yo‘lda bir kun Joriyai Habashiya paydo bo‘ldi, yuziga burqa bog‘liq. Va mening yuzumga tez-tez boqdi va so‘rdi: ey yigit, qaydinsan? Dedim: Ajamdin. Dedi: bu kun meni ranjg‘a solding. Dedim: nechuk? Dedi: bu soat Habash bilodidin erdim. Manga mushohada tushdiki, Tengri taolo sening ko‘nglungga tajalli qildi va sanga atoe qildiki, bu toyifadin men bilurlardin hech kimga mundoq ato qilmaydur. Tiladimki, seni ko‘rgaymen”. “G‘.S.”da ham:

Tajalliy istasang ul yuzdin o‘rtabon jisming,
Kuli bila ko‘ngul oyinasin jilo qilako‘r, –

pok ko‘ngillarning T.goh ekanligiga urg‘u beriladi. T. Allohning bandasiga lutf-u marhamatidir. Yaratganning solih quliga T.si uning ulug‘ maqomidan darak beradi. “N.M.”da bu haqda shunday yozilgan: “Ba’zi orifl ar dedi: Agar Alloh subhonahu o‘z zoti bilan biror bandasiga tajalli qilsa, barcha zot, sifot va fe’llarni Haqning zot, sifat va fe’llari partavida foniy holda ko‘radi. O‘zini barcha maxluqotlar barobarida go‘yo tadbir etuvchi, maxluqotlarni esa, o‘z a’zolari deb biladi. Maxluqotlarning birortasiga biror narsa ro‘y bermaydi, faqat o‘zini ularga eng yaqin deb biladi. Tavhid manbasiga tamoman g‘arq bo‘lgani uchun o‘z zotini Haqning yagona zotida, sifatini uning sifatida, fe’lini uning fe’lida ko‘radi. Albatta, insonga tavhidda bu maqomdan yuksagi yo‘q”. N. “X.M.”da Jomiyga bo‘lgan jaloliy va jamoliy T.lar haqida yozadikim: “...alarg‘a andoq mustavli erdikim, har muloyim mazharining husn-u malohatikim, Haq jamoliyati tajallisi bila zuhur qilmish bo‘lg‘ay yo javr-u bedodi ofatikim, jaloliyat sifati bila jilva ko‘rguzmish bo‘lg‘ay...”.

Ulug‘ shoir “H.A.”da, ta’kidlashicha, haqiqiy so‘z g‘avvoslari ilohiy fayz T.sidan bahramand bo‘ladilar va ularga ma’nolar mash’ali yoritiladi:

Ul kishi so‘z bahrida g‘avvos erur,
Kim guhari ma’ni anga xos erur.

Fayz harimida tajalliy anga,
Kim yorubon mash’ali ma’ni anga.

“F.Sh.” dostonida Shirin Farhodga noma yozganda, Haq o‘z oshig‘ini kuydirishi va ishqida yondirish u-n unga jaloliy sifat b-n T. qiladi, deydi.

Ko‘rub ishq ahlig‘a kuymoklik avlo,
Jaloliyat bila aylab tajallo.

Ulug‘ shoir g‘azallarida ham ilohiy husnni ta’riflash u-n ko‘p o‘rinlarda T. so‘zini yonmayon qo‘llaydi. Dunyoga hayot va go‘zallik beradigan oy, quyosh, yulduzlar va h.k.ning manbayi aynan ilohiy husn ekaniga ishora qiladi:

Zihi tajalliy husnung kelib jahonoroy,
Jamillar sanga oyinai jamolnamoy.

Jamol birla jaloliyatingdin o‘ldi bu nav’,
Sahar uzori uza shomi zulfi anbarsoy.

T. faqat tasavvufiy ma’noda emas, lug‘aviy ma’nosida ham qo‘llanadi. M-n, o‘ziga xos hikmatga ega bo‘lgan quyidagi baytda aytilishicha, gunohkor odam sodiq, ya’ni rostgo‘y va sadoqatli bo‘lsa, uzr b-n fayzga erishadi. Ammo mutakabbir zohidga fayz mutajalli (namoyon, zohir) bo‘lmaydi.

Mujrimi sodiq erur uzr bila qobili fayz,
Mu’jibi zuhdqa bo‘lmas mutajalli fayyoz.

T. kengroq ma’noda qo‘llanadigan o‘rinlar ham uchraydi. Bu kalima zuhur etish, ko‘rinish ma’nolarida ham keladi: “Mansur Halloj nuri yuz ellik yildin so‘ngra Shayx Fariduddin Attor ruhig‘a t. qildi va oning murabbiysi bo‘lubdur”.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Хамсат ул-мутаҳаййирин. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Хожа Аммад Яссавий. Девони ҳикмат. – Т., 2004; Абу Жўллоб Ҳужвирий. Кашф ул-маҳжуб. – Истанбул: 1996; Хожа Муҳаммад Порсо. Рисолаи қудсия. – Термиз, 2022.*

I.H.

TAJZIYA (ar. – bo‘lak-bo‘lak qilmoq, parchalash) – bayt misralarini o‘zaro teng 2 ritmik bo‘lakka ajratishga asoslangan lafziy san’at. Bu ham she’rning ta’sirchanligini oshiruvchi vositalardan biri. Agar ichki qofiyada 4 qismdan iborat baytning dastlabki 3 qismi qofiyalansa, tajziyada 1-misraning 1-bo‘lagi b-n 2-misraning 1-bo‘lagi, 1-misraning 2-bo‘lagi b-n 2-misraning 2-bo‘lagi qofiyalanadi. Bunday qofiyalanish tarzi g‘azal va qasida matla’lari, fard va masnaviyda uchraydi. Ba’zi adabiyotshunoslar, jumladan, V.Rahmonov ichki qofiyani T.ga kiritadi.

T.dan shoirlar she’rda ifodalilik va jarangdorlikni ta’minlashda foydalanadilar. N. ham bundan mustasno emas. Shoir ijodida mazkur san’atning ham go‘zal namunalarini ko‘ramiz. M-n:

Vahki, bo‘ldum ishq aro bir bevafog‘a mubtalo,
Bo‘lmasun ahli vafo mundoq balog‘a mubtalo.

Baytda 1-misraning 1-bo‘lagi b-n 2-misraning 1-bo‘lagi, 1-misraning 2-bo‘lagi b-n 2-misraning 2-bo‘lagi qofiyalangan. Holbuki, g‘azal ichki qofiyaga asoslanmagan, faqat matla’da T. san’ati qo‘llangan.

Boshqa bir baytida ham ayni holni ko‘ramiz:

Qayd aylarga junun ahlini bor ul ikki soch,
Har biri necha tugun, har tuguni necha quloch.

Bunday matla’lar va ichki qofiyali g‘azallar N. ijodida ancha-muncha.

Ad.: *Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011; Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадоеъ ус-саноеъ (А.Рустамов тарж.). – Т., 1981; Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Т., – 2001; Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2010.*

E.O.

TAJOHUL UL-ORIF (ar. – biluvchining bilib turib, o‘zini bilmaslikka solishi) – Sharq mumtoz she’riyatida keng qo‘llaniladigan ma’naviy san’atlardan biri. Bu san’atning ma’nosi shundan iboratki, shoir o‘zi tasvirlayotgan narsa-hodisani, uning sifati va xususiyatlarini juda yaxshi bilsada, fikrini yorqin va ta’sirchan, go‘zal va jozibali ifodalash maqsadida ritorik so‘roq usulidan foydalanadi. Aslida savolning javobi ichida bo‘ladi, ya’ni muallifning nima demoqchiligi shundoqqina bilinib turadi. Shuning u-n ham san’atning nomi T.O. – donolarcha nodonlikdir.

Shoir she’rda oqilona va asosli fikrlardan bir nechtasini keltirsa-yu, har gal o‘zini ikkilanganday qilib ko‘rsatib, “shundaymikan yoki shunday emasmikan” deb mulohaza yuritsa, T.O. san’ati bo‘ladi. Aslida esa izhor etilayotgan fikr, tasvirlanayotgan narsa juda ta’sirchan va asosli bo‘ladi, lekin ikkinchi misrada shoir avvalgidan-da go‘zal bir misrani keltiradi.

M-n:

Buki ko‘nglumni iting tishlarda
og‘zin qochurur,
Yo o‘ti, yoxud aning islang‘ani erkin sabab.

Bu yerda oshiq: “Ma’shuqa itining ko‘nglimga qiyo boqmayotganiga sabab uning ishq o‘tida yonib, tirik alangaga aylanganimi yoki uzoq muddat mahbuba vaslidan benasib qolganidan aynib hidlanganimi?” – deb o‘zini tag‘ofulga soladi.

Mazkur san’atning asosida tashbeh yotib, qiyoslash savol yo‘li b-n yuzaga chiqadi.

N. ijodida T.O.ning betakror namunalariga ko‘p duch kelamiz. Ba’zi g‘azallari hatto boshdan-oyoq ushbu san’at asosiga qurilgan. M-n, quyidagi baytida husn shohi bo‘lgan go‘zalim agar pari bo‘lmasa, nega ko‘zdan nihon keladi, deb o‘zini bilmaganga solish b-n aslida uning pariga tengligini tasdiqlaydi:

Keluptur yoshurun ul shah,
meni majnun eman ogah,
Pari ermas esa bas, vah,
nechuk ko‘zdin nihon keldi.

Mana bu baytda esa yorning qo‘li hinodan qizilmikan yoki oshiqlarini qatl qilishida qon sachrabdimikan, deb o‘zicha “hayrat” izhor etadi:

Ilgi hinodinmu rangindurki,
men qurbon anga,
Yo qilurda qatl, anga rang o'ldi qurbondin ilik?

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадоеъ ус-саноеъ (А.Рустамов тарж.). – Т., 1981; Раҳмонов В. Шеър санъатлари. − Т., 2001; Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. − Т., 2006; Ҳожиаҳмедов А. Шеър санъатларини биласизми? − Т., 2001.*

E.O.

TAJRID – N. ko'plab baytlarida Iso (a.s.) ni ko'kka yuksaltirgan narsa uning tajridi (mujarradligi, tajarrudi) degan fikrni ilgari suradi. Bular o'zaro ma'nodosh so'zlar bo'lib, T. – 1) qutultirish, ajratish; 2) yakkalanish, yolg'izlanish; 3) boshqalardan uzoqlashish; tajarrud – 1) go'shanishinlik, tarkidunyo qilish; 2) yolg'izlik, uylanmaganlik; mujarrad – 1) yolg'iz, xalqdan uzilgan, go'shanishin, 2) judo, ozod, forig'; 3) tanho, yagona; 4) uylanmagan ma'nolarini bildiradi, ya'ni tarki dunyo qilgan va oila qurmagan, olam savdosi va odam g'avg'osidan o'zini xalos etgan, yolg'iz Haqni sevib, Haqqa intilgan kishi. Tasavvufda dunyoviy bog'liqliklardan uzilib, Haqqa bog'lanish, Alloh yo'lidagi poklanish usuli. Dunyo mol-u mulkidan biror narsaga ega bo'lmaslik, botini ham nafs xohishlaridan xoli bo'lib, Xudovanddan hech nima talab qilmaslik. Ya'ni solikning zohiran mol-u mulkdan, botinan shubhali va ziddiyatli o'y-xayollardan o'zini xalos qilishi. Dunyoviy narsalarni tark etar ekan, evaziga dunyodan ham, oxiratdan ham biror narsa umid etmaslik, balki dunyoni hech narsa deb bilganligi u-n uni tark etish. Haqqa ibodatning o'zi unga qut bo'ladi. U dunyoning arpacha qimmati yo'qligi va uning ne'matlariga aldanganlar o'zlariga ziyon qilishlarini yaxshi biladi.

Ul quyosh vaslin tilarsen, bo'l mujarrad, negakim
Ko'kka Ruhullohni yetkurgan aning tajrididur.

Ad.: *Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик, 3-жилд. – Т., 1984.*

E.O.

TAJNIS (ar. − hamjins; jinsdosh) − tasvirda ta'sirchanlikni kuchaytirish maqsadida bir xil shakldagi so'zlarning har xil ma'no ifodalashidan foydalanishga asoslangan mashhur badiiy san'at. Xalq og'zaki idodida paydo bo'lib, keyin yozma adabiyotda keng ishlangan bu san'at shaklan bir xil yoki bir-biriga yaqin so'zlarning turli ma'no qirralari asosida nozik so'z o'yinlari qilish u-n shoirlarga keng imkoniyat yaratadi. T., xususan, turkiy she'riyatda keng qo'llanganidan, bu san'atga asoslangan alohida janr − tuyuq ham kelib chiqqan. Bu haqda "M.A." asarida N. "ikki baytqa muqarrardur va sa'y qilurlarkim, tajnis aytilg'ay va ul vazn ramali musaddasi maqsurdur", – deb ma'lumot beradi va misol tariqasida o'zining quyidagi tuyug'ini keltiradi:

Yo Rab, ul shahd-u shakar yo labmudur?
Yo magar shahd-u shakar yolabmudur?
Jonima payvasta novak otqali,
G'am o'qin qoshig'a yolabmudur?

Bu yerda "yolabmudur" so'zi birinchi misrada "yo labmikan", ikkinchisida "yalabdimi", to'rtinchisida esa "yoylabdimi (o'qlabdimi)" ma'nolarida kelyapti.

Odatda, T.da ikki shakldosh so'z qatnashadi. Tuyuqda esa ularning adadi uchtaga yetadi.

Qofiya T.i faqat tuyuqda emas, boshqa janrlardagi she'rlarda ham faol qo'llangan. Xalq og'zaki ijodi namunalarida, Yusuf Xos Hojib, Adib Ahmad Yugnakiy, Sayfi Saroyi, Atoyi, Lutfiy, Sayyid Ahmad, Haydar Xorazmiy, Xorazmiy asarlarida uning yorqin namunalarini ko'ramiz. N. ijodi ham bundan mustasno emas. Xususan, dostonlari matnida bu ko'p uchraydi. Jumladan:

Ko‘ngluma qo‘ydung ikki g‘am dog‘i,
Demasam ham yomon, desam dog‘i.

Chun azaldin shohi jahon sizsiz,
Bo‘lmasun bir nafas jahon sizsiz.

T. faolligi tufayli boshqa badiiy san’atlar tarkibidan ham o‘rin olgan: tajnisli tarse’, raddning ba’zi ko‘rinishlari shular jumlasidandir.

T.da jinsdoshlikning quyidagi shakllari mavjud:

1) shaklan bir xillik, aynan o‘xshashlik;
2) harfiy ifodadagi bir xillik;
3) talaffuzdagi o‘xshashlik

T. mumtoz she’riyatdagi asosiy san’atlardan bo‘lganligi, ko‘p qo‘llanilganligi, rang-barang ko‘rinishlari kashf etilganligiga ko‘ra ilmi bade’da ham bu san’at haqida yetarli darajada yozilgan. Uni turli-tuman tasnif qilishgan. Ba’zilar lafziy va ma’naviy deb t.ni ikkiga ham ajratishadi. Y.Is’hoqovning yozishicha, bunday yondashuv to‘g‘ri bo‘lmay, aslida “tajnis ham ma’naviy, ham lafziy san’atlarga xos xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lib, tajnis qo‘llashda bir vaqtning o‘zida ham so‘zning shakl tomoni, ham ma’no tomoni teng hisobga olinadi”.

T. tilning shakldosh so‘zlarga boyligi asoslanadi, turkiy til bu jihatdan alohida mavqega ega. Shoirlar tilning ushbu imkoniyatlaridan mahorat b-n foydalanib, nozik so‘z o‘yinlariga asoslangan betakror misra va baytlar, she’rlar ijod qilganlar hamda bu borada o‘z mahoratlarini namoyon qilganlar. N. ham bundan mustasno emas. Shoir ijodida T. ko‘p va rang-barang shaklda qo‘llangan. “X.M.”da o‘zbek tilidagi so‘zlarning turli ma’no qirralariga asoslangan 13 ta tuyuq mavjud. Bundan tashqari, u ko‘plab bayt-u misralarida bu san’atning betakror namunalarini yaratgan. M-n:

Bir oy o‘tti meni mahzung‘a, bir oy intizorinda –
Ki, ne ko‘nglum erur hushinda,
ne hushum qarorinda.

Bu yerda oy so‘zi yilning o‘n ikkidan bir bo‘lagi va mahbuba ma’nolarida kelyapti.

Yoki:

Labingni so‘rsam, emas tongki, to‘kti qonimni,
So‘rarlar aniki, bo‘lg‘ay birov bila qonlig‘.

Bunda “so‘rmoq” so‘zi “so‘ramoq” va “o‘pmoq” ma’nolarida kelyapti.

Shams Qays Roziy T.ning 5 xilini, Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy 7 xilini ko‘rsatsa, Atoulloh Husayniy uni lafziy va ma’naviyga ajratib, uning 7 ta lafziy va 3 ta ma’naviy ko‘rinishini keltiradi. T.Zehniy esa lafziy va ma’naviyga ajratish bn kifoyalanadi. V.Rahmonov 14 xiliga to‘xtaladi. Y.Is’hoqov o‘zbek she’riyatida T.ning 7 turi uchrashini aytib, ularni T.i tom va T.i noqis deb ikki guruhga ajratadi.

T.i tom yoki T.i mutlaq to‘liq shakldosh, ammo boshqa-boshqa ma’no anglatuvchi so‘zlar vositasida yuzaga kelgan T. Atoulloh Husayniy ta’biri b-n aytganda, “turli ma’nolig‘ so‘zlarning talaffuz jihatidin to‘liq muvofiqlig‘idin iborattur”.

Tufroq aro g‘arq poy to farq,
Oning bila yo‘q o‘luk aro farq.

Bu yerda “farq” so‘zi birinchi misrada “bosh”, ikkinchisida “tafovut” ma’nosida kelayapti.

T.i noqis (nuqsonli T.) bir necha xillarga bo‘linadi. T.i murakkabda T. unsurlari yozuvda ajralib tursa ham, quloqqa yaxlit eshitiladi:

La’lidin jonimg‘a o‘tlar yoqilur,
Qoshi qaddimni jafodin yo qilur.
Men vafosi va’dasidin shodmen,
Ul vafo, bilmonki, qilmas yo qilur?

T.ning yana T.i mukarrar (T.i takror), T.i muharrif (tafovutli T.), T.i xat va T.i lafz kabi turlari mavjud.

T. ko‘rinishlarining ko‘p va rang-barangligi, ular tasnifining xilma-xilligi mazkur san’atni keng va chuqur tadqiq qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011;Шамси*

Қайси Розий. Ал-мўъжам. – Душанбе, 1991; Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға // "Ўзбек тили ва адабиёти", 2002, №4; Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадоеъ ус-саноеъ (А.Рустамов тарж.). – Т., 1981; Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Л., 1972; Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т., 2006; Зеҳний Т. Санъати сухан. – Душанбе, 1967; Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2010.

E.O.

TAZKIRACHILIK VA NAVOIY – Tazkira (ar.) 1. Yodnoma, xotiranoma. 2. Yod etish va pand berish. 3. Shoirlar hayoti va ijodi haqida ma'lumot berilib, asarlaridan namuna keltiriladigan, tahlil qilinadigan to'plam. 4. Shayx-u valiylar hayoti va ahvoli haqida hikoya qilinadigan kitob (M-n, "Tazkirat ul-avliyo", "Nasoyim ul-muhabbat")dir. Tazkiralar ikki yo'nalishda bitilgan: Birinchi yo'nalishga mansub tazkiralar shoirlar, adiblarga bag'ishlangan. Ikkinchi yo'nalish – tasavvuf tazkiralari. Ularda shayxlar, avliyolar haqida ma'lumotlar berilgan.

N.gacha yozilgan tazkiralardan eng qadimiysi, umuman, fors tilidagi birinchi tazkira – Muhammad Avfiyning 1222 hijriy (mil.1808) sanada tuzilgan "Lubob ul-albob"idir.

Davlatshoh Samarqandiy 1487-y.da "Tazkirayi Davlatshohiy" deb ham yuritiladigan "Tazkirat ush-shuaro" asarini yaratadi va uni N.ga bag'ishlaydi. "Tazkirat ush-shuaro" X–XV asrlarda yashab ijod etgan qalam ahllariga oid faktik ma'lumotlarni, shuningdek, ana shu Xuroson, Movarounnahr, Eron, Ozarbayjon, Hindiston va boshqa viloyatlarda fors-tojik she'riyati rivojiga hissa qo'shgan shoirlar haqidagi rivoyat va hikoyatlarni o'z ichiga oladi. Lekin tazkira muallifi Avfiy izidan borib tartib berayotgan ma'lumotlariga, ayniqsa, u yoki bu shoir nomi b-n bog'liq afsona, rivoyat va hikoyatlarga ortiqcha ishonch b-n qaraydi. Natijada, tarixiylik buzilib, har xil chalkashliklar, jiddiy nuqsonlarga yo'l qo'yiladi. Bular, shubhasiz, tazkira materiallariga tanqidiy munosabatda bo'lish zarurligini taqozo qiladi.

Abdurahmon Jomiy 1486/87-yy.da o'zining "Bahoriston" nomli axloqiy-badiiy asarini yaratadi. "Bahoriston"ning 7 bobi (ravzasi) tazkira bo'lib, unda Rudakiydan Hasan Dehlaviyga qadar o'ttizdan ortiq shoirlar haqida ma'lumot va ular ijodidan namunalar keltiriladi. Tazkirada N. sha'niga aytilgan iliq va samimiy so'zlar g'oyat ahamiyatlidir.

N. esa "M.N."da o'z salafi Avfiy va zamondoshlari Davlatshoh va Jomiylardan o'zgacha yo'l tutib, tazkirasi ma'lumotlariga ulkan so'z san'atkori sifatida yondashadi. O'sha davr adabiy muhiti va adabiyotiga o'zining kuzatishlari va bahosi b-n ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shubhasiz, N. tazkirasida davrning madaniyati keng aks ettirilgan bo'lib, o'z zamondoshlariga bag'ishlanganligi b-n e'tiborli edi. Mana shu jihatlari bilan "M.N." yozilganidan oz fursat o'tmay, Sharq mamlakatlarining shoirlari, tarixchilari, olimlari diqqatini ko'p martalab o'ziga jalb eta boshlagan edi. XVI asrning o'zida "M.N."ning fors tiliga 3 marta tarjima qilinganligi Movarounnahr, Eron va Turkiyada tazkiraga zo'r qiziqish b-n qaralganidan dalolat beradi.

Faxriy o'z tarjimasini "Latoyifnoma" deb atagan va unga 188 shoir haqida ma'lumot beruvchi to'qqizinchi majlisni ilova qilgan. Bu majlis o'z navbatida yana 9 qismga bo'linib, ulardan birinchisi N.ga bag'ishlanadi. U Sulton Husayn Boyqaroga bag'ishlangan sakkizinchi majlisni qisqartib tashlab, uning she'rlaridan keltirilgan 164 bayt o'rniga 2 baytni namuna sifatida beradi. Qazviniy asarning nomini shundayligicha qoldiradi, "majlis"larni esa "behisht" deb ataydi. U ham sakkizinchi majlisni nihoyatda qisqartirib, uni 7-majlis oxiriga qo'shib yuboradi va o'zi tarafidan maxsus "behisht" ochadi. Bu yangi bob 2 qismga – Qazviniycha, ikki "ravzaga" bo'linadi. Ulardan birinchisida klassik shoirlar (Jomiyning "Bahoriston"idek), ikkinchisida esa turk sultoni – Sulton Salim poeziyasi va uning 150 ta saroy shoiri haqida ma'lumot beriladi.

Har bir mutarjim ham (ayniqsa Qazviniy) N. ning biror shoirga bergan tavsifini tarjima qilar ekan, shu shoir haqida o‘zlari bilgan yoxud eshitgan faktik ma’lumot, rivoyat yoki hikoyatlarni ham ilova qilib ketadilar. Mana shu qo‘shimchalar tarjimalarning qimmatini oshiradi, ular (maxsus qo‘shilgan alohida boblar qatori) ko‘p jihatdan o‘sha davr madaniy hayotini yoritishda muhim manba rolini o‘taydi. “M.N.” ma’lumotlaridan ko‘pgina yirik olimlar o‘z tadqiqotlarida keng foydalanib, uning haqida o‘z fikrlarini aytganlar.

XVII–XVIII asrlar madaniy va adabiy hayotida, mazkur an’analardan o‘rgangan holda, asosan, to‘rt tazkira bunyodga keldi. Bulardan uchtasi: “Tazkirat ush-shuaro” (1604–1605-yy., muallifi Mutribiy), “Muzakkir ul-ashob” (1692 y., muallifi Maleho Samarqandiy), “Riyozush-shuaro” (XVII asrning 40-yy.i, muallifi Mullo Sodiq Samarqandiy), yana biri, to‘rtinchisi “Mazhar ul-musannifin” (1758–1759-yy., muallifi Muhammad Amin bin Nurmuhammad Nasafiy) tazkirasi.

Shuni ham uqtirish lozimki, XVII asrning 40-yy.idagi madaniy va adabiy hayotdan bahs etuvchi “Riyoz ush-shuaro” hozircha topilgani yo‘q. Biz bu haqdagi mulohazalarni Muhammad Bade’ Maleho Samarqandiyning “Muzakkir ul-ashob-”idan bilamiz, XVIII asrda esa yakka-yu yagona “Mazhar ul-musannifin” (u ham tugallanmagan) bunyodidan ravshanki, bu davrda adabiy hayot imkoniyatlari mo‘‘tadil bo‘lmagan.

Mutribiyning “Tazkirat ush-shuaro”sida 320 dan ko‘proq qalamkashlar tilga olinadi. Xuddi shu o‘rindayoq alohida ta’kidlash lozimki, Hasan Xoja Nisoriydan so‘ng, uning dastparvar shogirdi sifatida Mutribiy davomchi bo‘lib, tazkiranavislikda N. an’analariga sodiq qoladi. O‘z zamondoshlari haqida ko‘rgan-bilganlarini imkoni boricha muxtasar bo‘lsa-da yozib qoldirishga tutinadi. Bu faoliyat natijasida biz ayrim mualliflar, masalalar haqida birmuncha batafsil, ayrimlari bo‘yicha esa juz’iy bo‘lsa-da ma’lumotga ega bo‘la olamiz. Chunonchi, 50–60-yy.gacha bizning adabiyotshunoslikda Fuzuliy va o‘zbek adabiyoti deganda ko‘pincha XVIII asrning so‘nggi va XIX asr nazarda tutilib, hatto Fuzuliydan bahramand bo‘lib yozish “xon” taxallusli Muhammad Alixonning tugallanmagan fuzuliyona “Layli va Majnun”idan yoki g‘azallaridan boshlangan deyilar edi. Mutribiy esa o‘z “Tazkirat ush-shuaro” sida Muhammad Sulaymon o‘g‘li Fuzuliy (1498–1556) haqida to‘xtaladi-yu, uning qimmatbaho asarlaridan mana bunday:

Bulbuli dil gulshani ruxsorin aylar orzu,
To‘tii jon la’li shakkarborin aylar orzu,–

kabi baytlarni ham keltiradi. Demak, Fuzuliyga qiziqish, o‘zbek adabiyotida shoirning hayotligi vaqtidanoq, aniqrog‘i, XVI asrdanoq boshlanib, “Tazkirat ush-shuaro” yozilayotgan yillarda esa (1604–1605) juda baland bo‘lganligidan dalolat beradi.

Bu esa, jo‘ngina ish emas. Shu sababdan ham biz, hatto Mutribiyning o‘zi haqida Said Roqim Samarqandiyning “Tarixi Roqimiy” kitobiga tayanib uning XVI asr ikkinichi yarmida dunyoga kelgani, Samarqand va Buxoroda tahsil ko‘rgani, o‘sha asrning zabardast shoiri va tazkiranavisi mo‘ysafid Hasanxoja Nisoriyning adabiyot bo‘yicha dastparvar shogirdi bo‘lganligi, ustod izidan borib, “Tazkirat ush-shuaro” yozganligi, ham shoir, ham musiqiy bilimlar bilimdoni, ham tazkiranavis sifatida shuhrat qozonib, XVII asrning taxminan 30-yy.ida dunyodan o‘tganligini ayta olamiz, xolos. Bu qat’iy xulosa emas. Chunki ilmda har qanday xulosalardan keyin yangi manbalarning topilishi b-n yangi va mukammalroq xulosalar paydo bo‘laveradi.

Muhammad Bade’ Samarqandda orttirgan bilimi b-n chegaralanib qolmay, uch yil surunkasiga Buxoroda, qo‘shni Eron shaharlarida bo‘lib, o‘nlab, yuzlab adabiyotsevar kishilar b-n muloqotda bo‘lgan, Samarqandga qaytgach, Shayboniyxon madrasasida mudarrislik qilib yurgan yillarda “Muzakkir ul-ashob”ni (1692 y.) yaratgan. Markaziy Osiyo shaharlari va Eronda XVII asrda hayot kechirgan 160 dan ziyod she’riyat muxlislari va ijodkorlaridan bahs etuvchi ushbu kitobda

shoirlar arab alifbosi tartibida zikr qilinib, o‘sha davr madaniyati, tartib tarzi, meros namunalari bo‘yicha Malehoning g‘oyatda muhim mulohazalari keltirilgan. Ushbu tazkira N., Nisoriy, Mutribiy an’analarini davom ettirish b-n birga, XVII asr shoirlari, ularning estetik mezonlarini bayon qilish jihatidan ham, zamonasidagi ijtimoiy tuzumda ro‘y berib turgan tartib tarzining tanqidi e’tibori b-n ham, muhim ahamiyatga molik xazinadir.

XVIII asrda tazkiranavisligida Ravnaq, Roqim, Nishotiy, Andalib (Xorazm) singari shoirlari, dostonchilari; Salohiddin Salohiy, Mujrim Obid, Arshiy, Shaydo, Sho‘xiy, Oshiq, Qone’, Muhammad Amin Mahviy Buxoriy (Buxoro, Xo‘jand), G‘iyosiddin G‘iyosiy Badaxshoniy, Mavlono Fujuhiy singari o‘zbek, tojik shoirlari faoliyati haqida faqat ularning asarlariga murojaat qila olamiz. Chunonchi bir qator o‘tmish shoirlarni, jumladan, Hofiz Sheroziy, Kamol Xo‘jandiy, N., Binoiy, Osafiy, Fig‘oniy, Hotifiy, Mushfiqiy kabilarni tilga olgan Mir Said Roqimi Samarqandiy N.ning mashhur asarlarini birma-bir sanab o‘tadi va uni “Xusravi iqlimi suxanvaron” (So‘z iqlimining podshosi), deb ataydi va bu so‘zi bilan ijodda unga izdoshlik va payravlik qilishga undaydi.

“Mazhar ul-musannifin” tazkirasi esa o‘z ko‘lami va qamrab olgan masalalari e’tibori b-n XVII va XVI asrda yaratilgan tazkiralardan farq qiladi. Mazkur tazkiralarda qalamkashlar ko‘proq tilga olinib joy-joyi b-n adabiyotning ayrim zaruriy masalalari bo‘yicha mulohazalar ham bildirib o‘tilgan.

Qadimiy tarixga ega bo‘lgan tazkira yozish an’anasi XIX va XX asrning boshlarida ham davom etdi. Buning natijasida mazkur davrda turli xarakterdagi bir necha tazkira maydonga keldi. XIX asrning birinchi choragida yaratilgan “Majmuai shoiron”, 1871-y.da Qori Rahmatullo Vozeh tomonidan tuzilgan “Tuhfatul-ahbob fi tazkiratul-ashob”, XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida tartib berilgan “Tazkirayi Fahmiy”, Abdul’azim Shar’iyning “Tazkirat ush-shuaro”, Mirsiddiq Hashmatning “Tazkirat ush-shuaro”, Afzal Pirmastiyning “Afzalut tazkor fi zikrish-shuaroi val ash’or”, Abdullaxo‘ja Abdiyning “Tazkirat ush-shuaroyi mutaaxxirini Buxoro”, Muhammad Sharif Sadri Ziyoning “Tazkorul-ash’or”, Hoji Ne’matullo Muhtaramning “Tazkirat ush-shuaro”, Ahmad Tabibiyning “Majmuayi siy shuaroyi Firuzshohiy”, “Muxammasoti majmuatush-shuaroyi Firuzshohiy” kabilari ana shunday tazkiralardandir. Bu tazkiralarning XIX asrdan oldin yaratilgan tazkiralar b-n umumiyligi hamda ba’zi o‘ziga xos xususiyatlari ham bor.

1. Yuqorida nomlari eslatilgan tazkiralardan Vozeh, Fahmiy, Shar’iy, Hashmat, Afzal, Abdiy, Sadri Ziyo, Muhtaramlarning asarlari tojik tilida yozilgan bo‘lsa, Ahmadjon Tabibiyning har ikkala asari ham o‘zbek tilida yaratilgan. “Majmuai shoiron” tazkirasi esa o‘zbek va tojik tillarida yozilgan. Ko‘rinadiki, mazkur davrning tazkiranavisligida ikki tilda asarlar ijod qilish kabi qadimiy an’anaga rioya qilingan. Bu asarlar, qaysi tilda yozilgan bo‘lishidan qat’i nazar, har ikki adabiyot – o‘zbek va tojik xalqlari adabiyoti tarixini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

2. XIX va XX asrning boshlarida maydonga kelgan tazkiralar o‘zining g‘oyaviy yo‘nalishi jihatidan ikki guruhga ajralganidek, tuzilishi, materialni qamrab olishi nuqtai nazaridan ham ikki xildir. Mualliflarining ijtimoiy-siyosiy va estetik pozitsiyalariga qarab mazkur tazkiralar g‘oyaviy yo‘nalish jihatidan: a) ijobiy an’anadagi tazkiralar; b) salbiy an’anadagi tazkiralarga bo‘linadi.

3. XIX va XX asrning boshlarida yaratilgan tazkiralardan bir qismi nasr b-n bitilgan bo‘lsa (Vozeh, Hashmat, Fahmiy, Shar’iy, Afzallarning asarlari), ayrimlari she’riy tarzda yozilgan. XIX asrgacha Markaziy Osiyo hududida she’riy tarzda tazkira yozilganligi haqida ma’lumot bo‘lsada, ammo u bizgacha yetib kelmagan. Shuning u-n XIX asrning boshlarida o‘zbek va tojik tillarida yozilgan “Majmuai shoiron” bizgacha yetib kelgan tazkiralar ichida she’riy tarzda yaratilganligi b-n alohida ajralib turadi. Bu tazkiradan so‘ng esa XIX asrning II yarmi va XX asrning boshlarida Buxoro va Xorazmda ham she’riy tazkiralarning namunalari yaratildi (Sadri Ziyoning

“Tazkor ul-ash’or”i va Ahmad Tabibiyning tazkiralari).

4. XIX va XX asrning boshlaridagi tazkiralar tuzilishi jihatidan ikki xildir. Bu tazkiralarning ko‘pchiligi (“Majmuai shoiron”, Ahmad Tabibiy, Vozeh, Shar’iy, Sadri Ziyo, Afzal tazkiralari) zamondosh shoir va shoirtab’larga bag‘ishlangan bo‘lsa, ayrimlari umumiy tazkiralar tipiga mansub bo‘lib, ularda bir necha asr mobaynida yashab ijod etgan shoir va shoirtab’lar to‘g‘risida fikr yuritiladi (Mirsiddiq Hashmat va Abumutallibxo‘ja Fahmiyning tazkiralari).

Demak, mazkur davrda tazkirachilik an’anasi tarixidagi ikki xil tazkira yozish uslubi davom etgan bo‘lsa-da, N.ning “M.N.”i kabi zamondosh shoirlar hayoti va ijodiga bag‘ishlangan tazkiralar aksariyatni tashkil qilib, ulug‘ o‘zbek mutafakkirining bu sohadagi xizmatlari qo‘llab-quvvatlangan. Shuningdek, mazkur davrdagi tazkiranavislikda tuzilishi jihatidan shunday bir yangilik maydonga keldiki, u Markaziy Osiyo territoriyasida XIX asrgacha mavjud bo‘lgan tazkirachilik tarixida uchramaydi. Bu yangilik shundan iboratki, hamma she’riy janrdagi asarlarni qamrab oluvchi, ma’lumot beruvchi tazkiralar b-n bir qatorda, ma’lum bir janr asarlari va uning avtorlaridan bahs qiluvchi tazkiralar ham maydonga keldi. M-n, Ahmad Tabibiy 1908-y.da Xorazm xoni dargohidagi shoirlarning faqat g‘azallarini o‘z ichiga oluvchi va shu haqda ma’lumot beruvchi “Majmuayi siy shuaron Firuzshohiy” tazkirasini, 1909-y.da esa shu shoirlarning muxammas va musaddaslaridan bahs etuvchi “Muxammasoti majmuatush-shuaroyi Firuzshohiy” asarini yozgan edi.

5. XIX va XX asrning boshlarida yaratilgan tazkiralarning ayrimlarida shoirlar hayoti va ijodi haqida so‘z yuritayotganda manbalarga tanqidiy yondashish, turli manbalarning ma’lumotlarini bir-biriga taqqoslash, solishtirish va ulardan to‘g‘rilarini tanlab olishga intilish ham ko‘zga tashlanadi. Bunday hol, xususan, Hashmatning tazkirasida namoyon bo‘ladi. Bu, bir tomondan, tazkira tuzish madaniyati va saviyasining ilmiy tadqiqot ishlariga yaqinlasha borganidan dalolat bersa, ikkinchi tomondan tazkiranavislik an’anasi xususiyatlariga ijodiy yondashilganini ham ko‘rsatadi.

“Majmuayi shoiron” 1902-y.da Abdulmannof qori binni Abdulvahhob nomli kotib tomonidan ko‘chirilgan nusxa asosida Toshkentdagi litografiyada toshbosma tarzda nashr ham etilgan. Asarda XIX asrning birinchi choragida, xususan, Amir Umarxon hukmronligi davrida (1810–1822) Markaziy Osiyo, Afg‘oniston, Sharqiy Turkistonning Samarqand, Xo‘jand, Toshkent, Andijon, Marg‘ilon, Buxoro, Hirot, Balx, Qashqar kabi 20 dan ortiq viloyatlaridan Qo‘qonga kelib, o‘zbek va tojik tillarida ijod qilgan 80 dan ko‘proq shoirlarning asarlaridan namunalar keltirilgan hamda ular haqida turli hajmda biografik va ijodiy tavsiflar berilgan.

XIX asrda yashab, ijod etgan shoir Vozehning adabiyotshunoslik sohasidagi kuch-qudrati va donishmandligini ko‘rsatuvchi asari uning “Tuhfatul-ahbob fi tazkirat ul-ashob” (“Suhbatdoshlar haqidagi zikr – do‘stlarga tuhfa”) nomli tazkirasidir. Mazkur tazkira 1871-y.da tojik tilida yozilgan bo‘lsa-da, ammo u faqat tojik adabiyoti tarixini o‘rganish uchun emas, balki o‘zbek adabiyoti tarixini yoritish u-n ham muhim manba vazifasini o‘taydi. Chunki unda XVIII asrning oxiri va XIX asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan tojik shoirlari b-n bir qatorda, o‘zbek va tojik tillarida asarlar yozib, bu ikki xalq adabiyoti tarixi u-n xizmat qilgan Junaydulla Hoziq, Muhammadsharif Gulxaniy, Eshonxo‘ja Vola Samarqandiy, Muhammadsharif Shavqiy Kattaqo‘rg‘oniy, Akmal Xo‘qandiy kabi qator mualliflar ham tilga olinadi va ularning hayoti, ijodiyoti to‘g‘risida ma’lumotlar beriladi. Ikkinchi tomondan esa tazkiraga kiritilgan mualliflarning ko‘pi Samarqand, Buxoro, Qo‘qon, Shahrisabz, Namangan, Qattaqo‘rg‘on, Farg‘ona, Qarshi (Nasaf) kabi shahar va viloyatlardan bo‘lib, ularning ikki tilda – o‘zbek va tojik tillarida ijod etish an’analarini davom ettirganlari nazarda tutilsa, Vozeh tazkirasining XVIII asr oxiri va XIX asr birinchi yarmidagi adabiy mu-

hitni, adabiyotlar do‘stligi va hamkorligini hamda shoirlarning hayoti va ijodini o‘rganishdagi ahamiyati nihoyat katta ekanligi yanada oydinlashadi.

Vozehning tazkirasi o‘zining xarakteri va tuzilishi jihatidan N.ning “M.N.”iga yaqin turadi. Chunki Vozehning asari “M.N.” kabi, asosan, muallifga zamondosh bo‘lgan shoirlarga bag‘ishlangan, ikkinchidan, unda shoirlar ijodiga obyektiv yondashish, baho berishga intilishning kuchli ekani ko‘zga tashlanadi va, nihoyat, eng muhimi shundaki, Qori Rahmatullo Vozeh ham N. kabi ilg‘or g‘oya va aqidalarni badiiy jihatdan go‘zal ifoda eta olgan shoirlarni shaklparastlik va “san’at”korlikka berilgan shoirlardan ajrata oladi, chuqur mazmunni ifoda etuvchi shoirlarga alohida diqqat b-n qaraydi.

Vozehning zamondoshlariga bag‘ishlangan tazkirasiga 145 shoir kiritilib, ularning hayoti va ijodi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Tazkiraga kiritilganlarning hammasi ham mahoratli shoirlar bo‘lmay, ayrimlari she’riyatga havasmand, jamiyatning turli guruhlariga mansub kishilar edi. Zero, mazkur tazkira zamonasi sharoiti b-n izohlanadigan kamchiliklaridan qat’i nazar, XVIII asrning oxiri va XIX asrning birinchi yarmidagi o‘zbek va tojik adabiyoti tarixini o‘rganishda muhim manbalardan biri hisoblanib, XIX asrdagi adabiyotshunoslikda N. “M.N.”ning an’analarini ilg‘or adabiy-estetik prinsiplar asosida rivojlantiruvchi adabiy yodgorlik sifatida qimmatlidir.

Xorazmlik Ahmad Tabibiy (1868–1910) o‘z zamonasining madaniyatli va ma’lumotli ziyolilaridan biri bo‘lib, sermahsul shoir va adabiyotshunos sifatida tanilgan bo‘lsa-da, ammo uning tomonidan tuzilgan ikki tazkira o‘zining g‘oyaviy yo‘nalishi, tuzilish tamoyillari va shoirlarga baho berish mezonlari jihatidan ana shu adabiy oqimning adabiy-estetik tamoyillariga asoslanadi. Ahmad Tabibiyning birinchi tazkirasi “Majmuayi siy shuaroyi Firuzshohiy” deb atalib, u 1325 hijriy – 1907 mil. y.da boshlanib, bir yildan so‘ng, ya’ni 1326 hijriy – 1908 mil. y.da yozib tugatildi.

Tabibiyning tazkirasida 30 dan ortiq saroy-feodal adabiy kitobidan olindi. Bunday hol shundan dalolat, beradiki, Tabibiy tuzgan “Majmua” haqiqiy tazkira bo‘lishdan ko‘ra ko‘proq shoir haqida qisqacha sharh-ma’lumotnoma ilova qilingan bayozga yaqin turadi.

Tabibiyning ikkinchi tazkirasi “Muxammasoti majmuat ush-shuaroyi Firuzshohiy” deb atalib, u birinchi tazkiradan bir yil so‘ng, ya’ni 1327 hijriy – 1909 mil.1-y.da tuzildi. Bu tazkira Tabibiy “Majmua”sining davomi bo‘lib, unda “Majmua”ga kiritilgan shoirlarning muxammas va musaddaslari to‘plangan. “Muxammasot”ning tuzilish tartibi, g‘oyaviy yo‘nalishi, shoirlarning asarlariga baho berish mezonlari muxammas va musaddaslardan namuna keltirishdagi tamoyillari – hamma-hammasi “Majmua”dagi ruh va uslubni takrorlaydi. Ikkinchi xil qilib aytganda, Tabibiy “Majmua”ni tuzishdagi adabiy-estetik aqidalari asosida o‘zining “Muxammasot”ini maydonga keltiradi. “Muxammasot”ga 30 shoirning Muhammadrizo Ogahiy va Firuzning g‘azallariga bog‘lagan muxammas va musaddasi kiritilgan bo‘lib, ularning barchasi payrav va taqlid uslubida yozilgan. “Muxammasot”da 190 muxammas va 58 musaddas jamlangan bo‘lib, har bir shoirning muxammas yoki musaddaslarini keltirishdan oldin shu shoir haqida qisqacha tavsif berilgan.

Ko‘rib o‘tganimizdek, N. ning “M.N.” asari o‘z davrida katta ahamiyatga ega bo‘lish b-n birga, keyingi davr shoirlari va tazkiranavislari ijodiga ham kuchli ta’sir qilgan va buning natijasida saviyasi har xil bo‘lgan bir qator tazkiralar maydonga kelgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Давлатшоҳ Самарқандий. Тазкират уш-шуаро, ЎзР ФА Шарқшунослик институти қўлёзмалар фонди, инв. № 2119; Маллаев Н. XV аср тазкираларининг тарихий-адабий аҳамияти. Тўпламда: Ўзбек адабиёти масалалари. Адабий-танқидий мақолалар тўплами. – Т., 1959; Валихўжаев Б. Ўзбек адабий-танқидий қарашлари тарихидан. – Самарқанд, 1964; Абдуллаев В.А., Валихўжаев Б.Н. “Мажолисун-нафоис” типидаги бир тазкира ҳақида.*

“Ўзбек тили ва адабиёти” журнали, 1965 йил, 5-сон; Шайхзода М. Тазкирачилик тарихидан (Алишер Навоийнинг озарбайжонлик тазкирачи шогирди ҳақида). Китобда: Шайхзода М. Ғазал мулкининг султони (Алишер Навоий ҳақидаги тадқиқот ва мақолалар мажмуаси). 6 жилдлик. 4-жилд. – Т., 1972; Болтабоев Ҳ. Туркий тазкираларда Алишер Навоий сиймоси. – Тошкент, “Жаҳон адабиёти”, 2013 йил, №2; Ўзбек адабиёти тарихи. 5 томлик. – Т., 1977–1980. Том 2. – Т., 1977; Том 3. – Т., 1978; Том 4. – Т., 1978; Самойлович А.И. Мажмуаи шуарои шоҳй пайрави Фирузшоҳи. записки Восточного отделения, т. XIX.

S.G‘., S.R.

“TAZKIRAT USH-SHUARO” (“Shoirlar tazkirasi”) – Davlatshoh Samarqandiy qalamiga mansub mashhur tazkira (1487). Asar muqaddima, xotima va yetti tabaqa (qism)dan iborat. Bu asar juda katta davr – qariyb besh yuz yil mobaynida yashab ijod etgan bir yuz ellik nafar shoir va adib faoliyatini aks ettirgan. Davlatshoh Samarqandiyning mumtoz adabiyot tarixidagi xizmati o‘z davridayoq katta baholandi. Jumladan, N. “M.N.”ning muqaddimasida “Amir Davlatshohkim, Xuroson mulkining asil mirzodalari orasida fazl va donish zevari bila ham Sultoni Sohibqiron otig‘a “Tazkirat ush-shuaro” otlig‘ kitob bitibdur, voqean base zahmat tortibdur va toifani yaxshi jam’ qilibdur”, deb yozadi. Asar hamd-u na’t, “Fasohat va balog‘at bayonida va bu san’atlar ahlining tafsili”, “Fasohat va balog‘at guruhiga mansub shoirlar xususida”, “Muallifning tarjimayi holi va kitobning yozilish sababi” nomli uch debocha fasl b-n boshlanadi. Bu fasllarda nutqning paydo bo‘lishi va uning xususiyatlari, she’r-u shoirlikning hayotdagi mavqe-maqomi xususida bahs yuritiladi. Tazkira muqaddima, 7 tabaqa (bob) va xotimadan iborat. Muqaddimada islomgacha yashab o‘tgan Labib, Farazdak, Mutannabiy kabi 10 nafar arab shoiri, xotimada esa muallifning zamondoshlari bo‘lgan 6 shoir (Abdurahmon Jomiy, N., Amir Shayxim Suhayliy, Xoja Afzal, Abdulloh Marvarid, Amir Husayn Jaloyir) haqida ma’lumot beriladi. Xotimada Davlatshoh Husayn Boyqaroga ham alohida maqola bag‘ishlaydi. Tazkirada VIII–XV asrlarda Movarounnahr, Eron va Iroqda yashab o‘tgan jami 153 nafar arab, forsiyzabon va turkigo‘y shoirlar to‘g‘risida ma’lumot berilib, ularning she’rlaridan namunalar keltiriladi. Muallif bunda faqat she’r ilmida mohir va hukmdorlar nazdida, maqbul shoirlarnigina tanlab olgan. Har bir shoirning nomi, taxallusi, tug‘ilgan joyi, kasb-u kori, faoliyati, asarlari, devonlarining hajmi va janriy tarkibi, mavzu ko‘lami, shoirlarning uslub yo‘nalishi va mahorat darajasi, vafoti ta’rixi, dafn etilgan joyi, zamonning muhim voqealari xususida ma’lumot beradi. Ular haqida gapirar ekan, yana o‘nlab mumtoz va zamondosh shoirlarni ham tilga olib o‘tadi. U bu b-n kifoyalanmay, o‘rni-o‘rni b-n adabiy masalalar, muhitlar, jarayonlar, she’riy janrlar, fasohat-u balog‘at, badiiy san’atlar borasida ham to‘xtaladi. Shoirlar hayoti b-n bog‘liq qiziqarli va ibratli hikoyatlar keltiradi.

Davlatshoh Samarqandiy asarining yana bir fazilati unda ayrim muhim tarixiy voqealar bayonining ham keltirilishidir. Chunonchi, O‘rta Osiyo, Afg‘oniston, Eron xalqlarining Sulton Jaloliddin Manguberdi boshchiligida 1221–1232-yy. mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi olib borgan kurashi tarixidan ayrim lavhalar; 1337-y. Xurosonda bo‘lgan sarbadorlar qo‘zg‘oloni hamda shu qo‘zg‘olon natijasi o‘laroq Xurosonning kattagina qismida bunyod topgan sarbadorlar davlatining (1337–1381) qisqacha tarixi ham asarda aks etgan. Shuningdek, kitobda keltirilgan Xuroson va O‘rta Osiyo janubiy qismining XV asrning 40-yillaridagi siyosiy hayoti b-n bog‘liq tafsilotlar, yirik tarixiy shaxslar – vazir va olim Nizom ul-mulk, ulug‘ shoir va olim Umar Xayyom, buyuk astronom Mirzo Ulug‘bek hayotiga oid voqealar ham alohidda qimmatga ega. Tazkirani yozishda muallif ko‘plab tarixiy, adabiy, ilmiy manbalardan foydalangan. Qamrovi va ko‘lamiga ko‘ra, “T.Sh.”ni Sharq adabiyotining

VI asrlik muxtasar tarixi deyish mumkin.

Davlatshoh o‘z tazkirasining muqaddimasida “Bu xizmat xayr-u ehsonining mevasi bo‘lgan sohibdavlat zot ta’rifi zikrida” nomli alohida fiqrada N.ning fazilatlari, saxovat va muruvvatini madh etadi. Tazkiraning unga bag‘ishlangan qismida esa ulug‘ shoirning tarjimayi holi, serqirra faoliyati, boy va rang-barang ilmiy-adabiy merosi xususida fikr yuritadi. Jumladan, uning ijodi haqida quyidagi mulammani keltiradi:

Turkiysin ko‘rub, qilurlar erdi tark-u tavba ham
Gar tirik bo‘lsalar erdi Lutfiy birlan Kardariy.

Bo vujudi forsiy dar janbi she’ri komilash
Chist ash’ori Zahiriy, kist bore Anvariy?

Ikkinchi baytning mazmuni: “Forsiy tildagi badiiy barkamol she’rlari oldida Zahiriy she’rlari nima bo‘libdi-yu, Anvariy kim bo‘libdi?”

“X.” haqida gapirar ekan, bu borada u so‘zning dodini bergan deb lutf etadi va shoirning mahoratiga misol sifatida “L.M.” dostonidan quyidagi baytlarni keltiradi:

Marz uzra kiyar sebarga javshan,
Shashpar ko‘tarur boshig‘a savsan.

Lola varaqin berib sabog‘a,
Bag‘ri qarodek uchar havoga.

Amir Xusrav Dehlaviyning “Bahr ul-abror” qasidasiga tatabbu’ tariqasida yaratgan “Tuhfat ul-afkor”da ma’nolar dodini bergan, nozik taxayyul, so‘z san’atkorligi va shoirlik mahoratida o‘zini ko‘rsatgan deb, 99 baytli ulkan qasidaning 73 baytini keltiradi.

Turkiy tildagi ijodini ham ta’riflab, namuna sifatida “Yo Rab, ul oy husnin el fahmiga nomafhum qil” misrasi b-n boshlanadigan badiiy yetuk g‘azalini keltiradi. Keyin N.ning bunyodkorlik faoliyati, xayr-u saxovati xususida ma’lumot beradi va o‘zining shoirga bag‘ishlab yozgan o‘zbek va fors-tojik tillaridagi mulamma’ qasidasini keltiradi. Unda, jumladan, shunday bayt mavjud:

Onchunon k-az maqdami sayyid
shuda Yasrib aziz,
Gasht dorulfazli olam az vujudi o‘ Hari.

Tarj.: Muhammad (s.a.v.) qadami sharofati bilan Madina aziz bo‘lganidek, Alisher Navoiyning muborak zoti tufayli Hirot ham olam ahli tavof etadigan muqaddas shaharga aylandi.

Qasidaning o‘zbekcha baytlaridan bir misol:

Bahri hikmatdur oning zebo zamiri ravshani,
Lo‘lo‘i manzumi ul bahri sharafning gavhari.

“T.Sh.” jahonning turli tillariga, jumladan, o‘zbek tiliga taniqli muarrix B.Ahmedov tomonidan bir qadar qisqartirilgan holda tarjima qilingan. Saylanma shaklidagi bu nashrda Movarounnahr va Xurosonda yashab ijod etgan 50 dan ziyod shoir haqidagi ma’lumotlar tanlab tarjima qilingan. Hamd-u sano, Husayn Boyqaro va N. madhida keltirilgan qismlar, shuningdek, ayrim she’riy parchalar tarjimadan tushirib qoldirilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Давлатшоҳ Самарқандий. Тазкират уш-шуаро. – Душанбе, 2015; Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар бўстони (“Тазкират уш-шуаро”дан). – Т., 1981; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 3. – Душанбе, 2004.*

E.O.

TAZMIN (ar. – o‘z ichiga olish) – fikrining tasdig‘i yoki rivoji, she’rning badiiy jihatini kuchaytirish maqsadida she’rda boshqa shoirning misra yo baytini omonatga qarz olgan kabi keltirish. “Badoyi’ us-sanoyi’”da keltirilishicha, “ul andog‘durkim, she’rga o‘zga biravning she’ridin bir nima, agar ul she’r mashhur bo‘lmasa, aning o‘zga kishinikiligin eslatib, kiritilur. Eslatmaning foydasi uldurkim, shoir o‘g‘urluqta ayblanmas. Ko‘proq she’rdin bir misra yoki bir bayt tazmin qilurlar”. M-n, N. Mirzobek, Lutfiy va Mavlono

Sohiblarning matla'larini T. sifatida olib, ularni yaxlit g'azalga aylantirgan. Mirzobek matla'si:

Ko'zung ne balo qaro bo'luptur –
Kim, jonga qaro balo bo'luptur.

Mavlono Sohib matla'si:

Ko'kragimdur subhning pirohanidin chokrok,
Kiprigim shabnam to'kulg'on
sabzadin namnokroq.

T. mushtarak san'atlar jumlasidan bo'lib, to'liq va noto'liq T.ga ajratiladi. Noto'liq. T.ning quyidagi ko'rinishlari mavjud: 1) misraning bir qismini tazmin qilish; 2) bir misrani T. qilish; 3) bir baytni T. qilish; 4) bir necha baytni T. qilish. To'liq T.da asar (g'azal, qit'a, masnaviy, qasida va b.) muayyan maqsadda to'liq yoki qisman T. qilinadi. M-n, shoir 3 misra yozib, boshqa shoirning baytini tazmin qiladi (muxammas), 4 misra yozib, boshqa shoir baytini T. qiladi (musaddas) va boshqa. T.ning bu turi shoirlar u-n mahoratni oshirish hisoblanadi. Shoirlar ba'zida o'zlarining ilgari yozgan she'rlarini ham T. qiladilar.

T.ning qator shartlari bor: 1) shoirning o'z so'zi b-n iqtibosga olingan parcha bir-biri b-n uzviy bog'lanib, bir-biridan ajratib bo'lmas darajada bo'lishi kerak; 2) vazn-u qofiya talabi b-n iqtibosga juz'iy o'zgartirish kiritish mumkin, lekin bu ma'noga daxl qilmasligi lozim; 3) taniqli bo'lmagan shoir she'ridan ko'chirma olganda o'g'rilikda ayblamasliklari u-n uning muallifiga ishora qilgan ma'qul.

N. ijodida T.ning qator ko'rinishlari uchraydi. Jumladan, "Tuhfat ul-afkor" qasidasida tatabbu' qilinayotgan Amir Xusrav Dehlaviy "Daryoi abror" qasidasining matla'sini 4- va 5-baytlarning 2-misralarida T. sifatida keltiradi:

Lozimi shohi naboshad xoli az dardi sare,
"Ko'si shah xoliyu bongi g'ulg'ulash
dardi sar ast".
Bo dahoni xushku chashmi tar qanoat kun,
az on-k
"Har ki qone' shud ba xushku tar,
shahi bahr-u bar ast.

Tarj.: Shoh hech qachon bosh og'rig'idan xoli bo'lmaydi, chunki katta nog'oraning ichi bo'sh bo'lsa ham, g'avg'osi olamni buzadi. Quruq og'iz-u yoshli ko'zga qanoat qil, zero ho'l-u quruqqa qanoat qilgan quruqlik va dengizning, ya'ni olamning shohi bo'ladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадоеъ ус-саноеъ. – Т., 1981; Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. – Душанбе, 1987; Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т., 2014; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 3. – Душанбе, 2004.*

Y.I., E.O.

TAZOD (ar. – zid qo'yish, qarshilantirish) – badiiy adabiyotda eng ko'p qo'llanadigan va eng ta'sirchan san'at. Bu so'zning ma'nosi "zid qo'yish", "qarshilantirish" bo'lib, undan o'zaro zid so'zlar, tushunchalar, iboralarni bir-biriga qarshi qo'yish orqali fikrni ta'sirchan ifodalash, go'zal badiiy timsollar, lavhalar yaratishda foydalaniladi. Bunday olib qaraganda, bu san'atni qo'llashdan osoni yo'q, chunki hayotda hamma narsa o'z ziddiga ega. M-n, oq-u qora, do'st-u dushman, halol-u harom, past-u baland va h.k. Lekin buyuk so'z san'atkorlari hech kimning xayoliga kelmagan favqulodda va ohorli tazodlar topib, fikrlarini badiiy barkamol va ta'sirchan shaklda ifodalaydilar. Jumladan, Shayxzoda ta'biri bilan aytganda: "Navoiy tazodlarni soniga qarab emas, sifatiga qarab tejab qo'llaydi va uning tazodlari chuqur hayotiy voqeani, umumiylashtirilgan falsafiy hikmatni izhor etishga xizmat qiladi". M-n:

Xazon sipog'ig'a, ey bog'bon, emas mone',
Bu tog' tomida gar ignadin tikan qilg'il.

Bu yerda go'yo shoir bog'bonga murojaat qilib: "Bog'ingni harchand ignaband devor bilan muhofaza qilma, uni xazon qo'shini istilosidan asrab qololmaysan", – deb uni ogohlantirmoq-

da. Aslida bu bayt chuqur falsafiy mazmunga ega bo‘lib, u insonga qarata: “Har qancha yo‘lini to‘sma, yoshlik o‘rnini baribir qarilik egallaydi”, − demoqda. Yoki:

Sen agar tarki tama’ qilsang, ulug‘ ishdur bukim,
Olam ahli barcha bo‘lg‘ay bir taraf,
sen bir taraf.

Bu yerda shoir: “Hozir butun dunyo tama” quliga aylangan, agar sen tamani tark etsang, olamdagi barcha odamlar bir taraf-u sening yolg‘iz o‘zing bir taraf bo‘lasanki, bu nihoyatda ulug‘ ishdir” deb alqash b-n aslida tamagirlikka asoslangan davrni va nafsni bayroq qilgan jamiyatni keskin fosh etmoqda.

T.ni ba’zilar lafziy va ma’naviy T. deb ikkiga ajratadilar. Lafziy T.da she’rda ishlatilgan so‘zlar bir-biriga qarshi bo‘lsa, ma’naviy T.da o‘zaro zid ma’nolar qo‘llanadi. M-n:

Olam ahli, bilingizkim,
ish emas dushmanlig‘,
Yor o‘lung bir-biringizgakim, erur yorlig‘ ish.

Yoki:

Pil o‘lsa sening xasming, desangki, zarar topmay,
Bir pashshag‘a olamda yetkurma zarar hargiz.

Keltirilgan misollarning birinchisida yorlik (do‘stlik) va dushmanlik, ikkinchisida fil va pashsha bir-biriga qarshi qo‘yilmoqda.

Hajr bedodidin ul yuz shavqi ortar har necha
Kim, xazon osibidin gul yafrog‘i nobud erur.

Bu yerda xazon istilosidan gul yaprog‘i nobud bo‘lishiga hijron azobidan diydor orzusi ziyoda bo‘lishi qarshi qo‘yilyapti. Holbuki, hajr bedodi barcha umidlarni o‘ldirishi kerak. Baytda yana hajr bedodiga yuz shavqi zid qo‘yilyapti.

Yoki:

Qilsa bo‘lmas oh-u afg‘ondin
meni shaydoni zabt,
Uylakim, javr-u jafodin ul buti tarsoni zabt.

Keltirilgan baytda sitamgar mahbubani javr-u jafodan qaytarib bo‘lmasligiga oshiqni oh-u noladan to‘xtatib bo‘lmasligi qarshi qo‘yilyapti. Albatta, bu yerda jabr-u jafo b-n oh-u afg‘on o‘zaro so‘z T.ini hosil qilgan. Kofir sanam b-n oshig‘i shaydo haqida ham shunday deyish mumkin. Lekin harakatning natijasi ma’no jihatidan o‘zaro zidlik kasb etmoqda.

N. o‘z asarlarida T. san’atini rang-barang ma’nolar va har xil badiiy vazifalarda qo‘llash b-n uni yuksak darajaga ko‘tardi. Shoir misra va baytlarda o‘zaro zid ma’noli so‘z va iboralarni mahorat b-n qo‘llabgina qolmay ba’zan butun boshli g‘azallarini T. asosiga quradi. “Tun bilan tong” radifli g‘azali buning yorqin misoli:

Mening firoqim-u oning visoli tun bilan tong,
Bu nav’ davrda yo‘q ehtimoli tun bila tong.

Ad.: *Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға // “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2002, № 5; Шамси Қайси Розий. Ал-мўъжам. − Душанбе, 1991; Фитрат. Адабиёт қоидалари // Танланган асарлар. 4-жилд. − Т., 2006; Шайхзода. Тазод // Асарлар. 6-жилдлик, 4-жилд. – Т., 1972; Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т., 2006; Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Т., 2006; Зеҳний Т. Санъати сухан. – Душанбе, 1967.*

E.O.

TAYLASON (ar.) – 1. Ulamolar va qozilar kiyadigan uzun, keng va yengsiz to‘n. 2. Darveshlarning bosh va bo‘yinga solib, orqaga tashlab yuradigan chodirga o‘xshagan kiyimi deyilgan. 3. Darvesh-u so‘fiylar ridosi. N. ijodida badiiy timsol o‘laroq turli: ijtimoiy, axloqiy, irfoniy ma’nolarni yuzaga chiqarish maqsadida qo‘llanilgan:

Aningdek chirmadim birjisdin toj –
Ki, boshi taylasong‘a bo‘ldi muhtoj.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Фарҳанги забони тожики. Жилд 2. − М., 1969; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. − Т., 1984.*

M.A.

TAKRIR (ar. − takror) − so‘z takroriga asoslangan lafziy san’at. Bunda shoir bir so‘z yoki iborani ikki yoki uch marta takrorlash orqali muayyan fikrga urg‘u beradi, his-tuyg‘ulari, hayajonini kuchaytirib ifodalaydi. So‘z yoki ibora ketma-ket ham, bayt yoki she’rning turli o‘rinlarida ham takrorlanishi mumkin. M-n:

Itmen men, ulusqa ormen men,
Boshdin-oyog‘i figormen men.

Bu yerda o‘z ahvolini keskin ta’kidlab ko‘rsatish u-n T.dan foydalanilgan.

Quyidagi baytda esa T. harakatning doimiy davom etib turishiga ishora qilish maqsadida qo‘llangan:

O‘ynay-o‘ynay o‘lturur bir-bir
ulusni ko‘zlaring,
Sho‘x qotillarni jonlar qasdig‘a o‘ynatma ko‘p.

Ad.: *Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Т., 1979; Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Т., 2001; Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2010.*

E.O.

TALAB VODIYSI – Q.: YETTI VODIY.

TALVIN-TAMKIN – tariqat solikining hol-u maqomidir. Bu ikki hol qabz va bast, xavf va rajo, sakr va sahv kabi bir-birini taqazo etadi. Talvin bir rangdan boshqa rangga o‘tish, bir holdan boshqa holga o‘zgarishdir. Talvinning natijasi tamkin hisoblanadi. Tamkin bir manzilda qaror topmoq, vazminlik va ruhiy ulug‘vorlikka erishmoq ma’nosini anglatadi.

“L.T.” dostonida tarso qizi Shayx San’onga shunday malomat qiladi:

Dedi sho‘x: – “Ey murshidi oliy sifot,
Ahli islom ichra yo‘q ermish uyot.

Sen kibi islom eliga muqtado,
Ne parishon nuktalar qilding ado?

Shayxliq tavrida oting yo‘qmudur?
Oq soqolingdin uyoting yo‘qmudur?

Dardi ishq oyini mundog‘mu bo‘lur,
Zuhd eli tamkini mundog‘mu bo‘lur?”

Ko‘ngli zarif, ruhi latif, axloqi go‘zal, ma’naviy hayoti mukammal Haqning sodiq qullariga “hol sohiblari” deyilgan. Ulardan bir qismi holiga mahkum – talvin sohiblari, yana boshqa bir toifalari holiga hokim – sahv va tamkin vakillari bo‘lganlar. “N.M.”da ham valiylarning talvin lahzalari, ya’ni holdan holga yuksalishlari ko‘rsatilgan hodisotlar ko‘p uchraydi: “Bir g‘urfada bir uluq kishi o‘lturub erdi va ilayida bir kanizak mug‘anniylik qiladur erdi. Darvesh eshittikim, bu baytni o‘qiydurkim, bayt:

“Har kun ranging o‘zgarar,
o‘zgarmasa senga yaxshiroq,
Har kun holing o‘zgarar,
o‘zgarmasa senda go‘zalroq”.

Darveshga xush keldi va mug‘anniyg‘a ont berdikim, “ey kanizak, Allohga va xojang hayotiga qasamki, bu baytni takror o‘qi”. Kanizak takror qila boshladi. Xoja ul takror sababin so‘rdi. Kanizak dedikim, ko‘shk tubida bir darveshki vaqti xush bo‘lubdur va takroriga ont beradur. Xoja quyi boqti va ul g‘aribni ko‘rdikim, vaqti xush bo‘lib, samo’ qiladur. Oxir bir so‘z aytti va faryod qildi va yiqildi va jon berdi”.

Xavf va rajo qulning boshlang‘ich, ya’ni umumiy muhabbat holidir. Qul bu muhabbatdan haqiqiy ishq pillapoyalariga yuksalar ekan, yangi bir hol va mudom o‘zini malomat qiluvchi nafs sohibiga aylanadi. Tamkin maqomi solikning muqim birga holda ekanligidan darak beradi.

N. devonlaridagi ko‘pgina g‘azallar oshiqning tamkin va talvin hollari natijasi o‘laroq dunyoga kelgan. Hamd hamda na’t g‘azallar ko‘proq tamkin holida yozilgan. Ammo aksar g‘azallarida holdan holga o‘tish ustundir. *“Nozaninlar, benavolarg‘a tarahhum aylangiz”* kabi g‘azallari shular jumlasidandir:

Biz fano tufrog‘i bo‘lduk dayr aro, ey ahli zuhd,
Xonaqah sahnida siz bahsi taqaddum aylangiz.
Ey mug‘anniylar, Navoiy mast edi – kech uyg‘onur,
Oni uyg‘otmoqqa bir dilkash tarannum aylangiz.

Ad.: *Алишер Навоий. Бадоуеъ ул-васат. TAT. 10 жилдлик, 3-жилд. – T., 2011; Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. TAT. 10 жилдлик, 9-жилд. – T., 2011; Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlügü. – İstanbul, 1995.*

Z.R.

TALI’ – “S.I.” dostonidagi qahramon. Taxtga o‘tirgach, Iskandar Doroga xiroj to‘lashdan bosh tortadi. T. Iskandarga qarshi urushga tayyorgarlik ko‘rgan Doroga “mag‘rib ahli”dan ko‘maklashish maqsadida askar boshlab kelgan.

Hamul mag‘rib ahlini boshlab Tali’,
Arab xaylining peshvosi vaki’...

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. TAT. 10 жилдлик, 8-жилд. – T., 2011.*

M.A.

TALLI AQARQUN – Bobil shahrida qurilgan ko‘hna rasadxona nomi. Talli aqarqun to‘g‘risida N. “T.M.A.” asarining Kaykovusga bag‘ishlab bitgan fiqrasida qisqa, lekin juda qiziqarli xabar yozgan: “Va payg‘ambarlardin Dovud va Sulaymon alahissalom va Luqmoni hakim aning zamonida edilar. Va osoridin rasaddurkim, Bobulda yasabdurkim, holo Talli aqarqun derlar.”

Ma’lumot o‘rnida yana shuni aytish mumkinki, N. faxr va e’tirof tuyg‘usi bilan “F.Sh.” dostonida hamda “M.N.” tazkirasida Ulug‘bek Mirzo Samarqandda qurdirgan mashhur rasadxona xususida iliq fikrlar aytgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. TAT. 10 жилдлик, 6-жилд. – T., 2011; Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. TAT. 10 жилдлик, 8-жилд. – T., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. TAT. 10 жилдлик, 9-жилд. – T., 2011.*

B.R.

TALMEH (ar. − ishora qilish, biror narsa tomonga yengil nazar tashlash) − mumtoz she’riyatda eng ko‘p uchraydigan badiiy san’atlardan biri. Bunda mashhur bir qissa, voqea yoki asarga ishora qilish orqali aytilajak fikr, ifodalanajak holat, bayon etilajak maqsadni cho‘zmay, so‘zni muxtasar qilinadi. Shunga ko‘ra, T. she’rda oz so‘z b-n ko‘p ma’noni ifodalash san’ati deyiladi. T. shoirdangina emas, o‘quvchidan ham muayyan darajada bilimdonlikni, ko‘p narsadan xabardorlikni taqozo etadi. M-n, Shayx San’on qissasini bilmagan kishi N.ning quyidagi baytini butun teranligi va nozikligi b-n tushunib yetmaydi:

Ko‘nglum o‘tidin, ne tong, gar topsa ruxsoring furug‘,
Sho‘x tarso Mushaf o‘rtar shayx San’on o‘tig‘a.

Nasroniy go‘zal Shayx San’on ishqi o‘tiga Qur’onni yoqqaniday, ko‘nglimda yongan muhabbat o‘tidan yuzing porlasa, shu’lalansa, sira ajablanadigan joyi yo‘q.

Bu yerda shoir Shayx San’on voqeasidan ko‘nglida ishq yoqqan o‘tning olamni kuydirar darajada kuchliligini bayon etish u-n foydalangan.

Shayx San’on taqvo-yu toati, parhezkorligi, ilmi, xulqi b-n mo‘minlar orasida mashhur, ularga ibrat bo‘lib, u 50 marta haj qilgan, 400 ta muridi bor edi. Diniy ilmlarda va insoniy fazilatlarda zamonasining yagonasi bo‘lgan. Mana

shunday komil bir inson ham nasroniy qizni deb sharmandayi sharmisorlik koʻchasiga kirdi. Maʼshuqasining islomga zid boʻlgan 4 ta shartini bajardi: may ichdi, zunnor taqdi, Qurʼonni oʻtga yoqdi va butparast boʻldi. Buning ustiga, mazkur shartning ikki jarimasini ham sira ikkilanmay ado etdi: bir yil choʻchqaboqarlik va shuncha muddat hammomda goʻlaxlik qildi. Agar bu qissani boshdan-oyoq hikoya qilib, keyin oʻz ishqini u b-n qiyoslasa, shoir butun boshli bir kitob yozishi kerak. Holbuki, u oʻz holatini bor-yoʻgʻi bir baytda bayon etib, qolganini zukko oʻquvchining bilimdonligiga, nozik taʼbiga havola qiladi.

Albatta, bularning bari majoziy maʼnoda boʻlib, tasavvuf istiloh-timsollariga koʻra, may ichish − koʻngilga ilohiy ishqning tushishi, zunnor – haqiqiy mahbuba toati va xizmatiga bel bogʻlash, Qurʼonni kuydirish − zohiriy toat-ibodat, rasm-rusum, odat-marosimlar oʻrnini Haq muhabbati egallashi, sukr − mastlik holati boʻlib, ilohiy may boʻlmish Olloh muhabbatidan mastu mustagʻraq kishining es-hushini yoʻqotishidir − faqat oʻzini unutgan kishigina ilohiy maʼrifatni his qila oladi. Keyinchalik xotirasidan koʻtarilgan Qurʼonning qayta zehniga oʻrnashishi − ilohiy maʼrifatga qalbi toʻlishib, uning oʻziga kelishi − sahv (hushyorlik) holatini egallashidir. Butparastlik − dunyodan butkul voz kechib, haqparastlik qilishdir. Mazkur shartning ikki jurmonasi boʻlgan choʻchqaboqarlik − nafs xohishlaridan voz kechish boʻlsa, goʻlaxlik − koʻngilni dunyo gard-u gʻuborlaridan poklash.

Sharq mumtoz poetikasi bilimdonlaridan Shams Roziy T. shoirning sheʼriyatdagi balogʻat va mahoratidan darak berishini taʼkidlab, uning uch koʻrinishda namoyon boʻlishini aytadi: ejoz, musovot va bast. Ejoz − oz soʻz b-n koʻp maʼnoni ifodalash. Musovotda soʻz va maʼno teng boʻladi. Bast esa maʼnoni koʻp soʻz bilan ifodalashdan iborat. Istiora va tashbehlar bari ejoz jumlasidan boʻlib, ortiqcha bayon va shubhani bartaraf etish u-n batafsil maʼlumot keltirish b-n bogʻliq sanʼatlar bast hisoblanadi.

Bu sanʼatlardan eng koʻp qoʻllanadigani − ejoz. T.dan maqsad ham aslida − shu. Musovot va bast kam qoʻllanishidan tashqari, uncha mashhur ham emas.

Sharq mumtoz soʻz sanʼatida T. sanʼatiga murojaat qilmagan shoir yoʻq hisobi. Zamonaviy shoirlar ijodida ham T.ning goʻzal namunalari mavjud.

Ad.: *Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадоеъ ус-саноеъ. − Т., 1981; Шамси Қайси Розий. Ал-мўъжам. − Душанбе, 1991; Очилов Э. Талмеҳ // ЎзМЭ. 8-жилд. − Т., 2004.*

E.O.

TALOYA – harbiy atama. Oʻrta asrlarda Sharq davlatlari qoʻshinlarida qoʻllanilgan. N. faqat davlat arbobi emas, harbiy arbob ham edi. U Husayn Boyqaroning harbiy yurishlarida, koʻplab janglarda ishtirok etgan. Shu sababli harbiy atamalarni yaxshi bilgan va oʻz asarlarida qoʻllagan. T. atamasi ham shularning biridir.

T. – bu qoʻshin joylashgan yerni, harbiy qarorgohni tunda himoya qiluvchi harbiy qism. Lekin bu tungi soqchilik qismi emas. T.ning tungi soqchilikdan farqi shundaki, tungi soqchilarning muayyan oʻrni (posti) boʻladi va ular oʻsha joylarda turib, soqchilik qiladi. T. esa qarorgoh atrofida, tashqariga chiqqan holda harakat qiladi va tun boʻyi qoʻshin joylashgan yerni tashqaridan aylanib, kezib yuradi.

N. “S.I.” dostonida Iskandar va Doro qoʻshinlarining jang oldidagi holatini tasvirlagan. Shu oʻrinda u Iskandar qoʻshinining T.si haqida ham toʻxtalib oʻtadi. Kun botib, qorongʻu tushishi b-n T. qarorgohdan tashqariga chiqib, hushyorlik b-n oʻz vazifasini bajarishi haqida shunday yozadi:

Quyosh chun botib, koʻkka soya chiqib,
Hamul iki yondin taloya chiqib.

Yazak ahligʻa, oʻyla, bedorliq,
Taloya aro, oʻyla, hushyorliq.

Bu qismning qanchalik hushyorlik va tezlik b-n qarorgoh atrofida yurishini tasvirlar ekan, N.

“Agar bir chumoli tebransa taloya o‘sha zahoti uning ko‘zini o‘q bilan teshar edi”, – deb yozadi:

Ki gar mo‘r tebransa, qilmay darong,
Tikarlar edi ko‘zin, otib xadang.

Birinchi kungi jang tugagach, har ikki qo‘shin o‘z qarorgohlariga qaytadilar va ertasi kuni bo‘ladigan jang oldidan dam oladilar. T. esa ularning oromini va himoyasini ta’minlaydi:

Taloya yana chiqti har soridin,
Yazak tinmadi hifz izhoridin.

Boshqa bir o‘rinda N. T. haqida shunday yozadi:

Taloya bo‘lub har tarafdin mudir,
Tun o‘g‘risin etmak uchun dastgir.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

Q.E.

“TANBIHLAR” – N.ning falsafiy-axloqiy asari “M.Q.”ning uchinchi qismi “Mutafarriqqa favoyid va amsol surati” (ya’ni, turli foydali maslahatlar va maqollar) deb ataladi. Bu yerda N. insonga foydali bo‘lgan turli xususiyatlarni, chunonchi, saxiylik, mehribonlik, vafodorlik, muloyimlik, rostgo‘ylik, ilmsevarlik, kamtarlik, mehnatkashlik, tavoze’lik va h.k.larni madh etadi. Shuningdek, insonga yarashiqsiz, insoniylikka zid bo‘lgan takabburlik, yalqovlik, fitna-fujur, yolg‘onchilik, firibgarlik, johillik, baxillik, hasadgo‘ylik, ochko‘zlik, tanballik, mayparastlik kabi xislatlarni qoralaydi.

Bular yuzasidan o‘z qarashlarini N. “Tanbih” deb nomlangan g‘oyat muxtasar, kichik bobchalarda bayon qiladi. Lekin T. orasida bir muncha kattaroq hajmdagilari ham uchraydi. “M.Q.”da 120 ta T. bor. M-n, T.larning birida N. til va unga munosabat haqida fikr yuritadi: “Tilga ixtiyorsiz – elga e’tiborsiz”, “Yamon tilli andoqkim, el ko‘nglig‘a jarohat yetkurur, o‘z boshig‘a ham ofat yetkurur...” – deb yozgach, yaxshi so‘zning nechog‘lik inson uchun foydali ekanligini, yomoni esa falokatlar keltirishini go‘zal o‘xshatishlar b-n tushuntirib beradi.

N. til, so‘z va nutq masalasiga oid fikrlar “M.N.”da ham “X.” dostonlarida ham mavjud. Bular zaminida tilning, nutqning ko‘p afzalliklari va nuqsonlari ochib beriladi. Nodon odamning pandi, achchiq tillikning kasofati, yolg‘onchining zarari va h.k.lar N. T.ining mavzusidir. T. so‘nggidagi she’rlar goho nasriy bayonga xulosa tarzida keladi, goho esa muayyan hikmatli mazmunga ega bo‘lib, T.dagi fikrni davomidek o‘qiladi. M-n:

Kishiga necha kelsa mushkul hol,
Hikmat-u aql anga erur hallol.

Yoki:

Har kimsaki, aylamas oshuqmog‘ni xayol,
Yafrog‘ni ipak qilur, chechak bargini bol.

N. T.dan yana birida yaxshilikka yomonlik qiluvchilar, xizmat evaziga tuhmat qilishi, mulozamat javobi takabburlik ekanini zamonaning teskariligidan deb biladi. T.da xalq hikmatlari, matal va maqollari ko‘plab keltiriladi. Shunday T. borki, ular tamom maqol va hikmatli so‘zlardan iborat, chunonchi: “oz demak hikmatga bois va oz yemak sihhatga bois. Og‘ziga kelganni demak nodon ishi va oldig‘a kelganni yemak hayvon ishi”; “Yaxshidin yomonlar ham yomonlig‘ ko‘z tutmas; yaxshi yomonlarg‘a ham yaxshilig‘ni unutmas. Yaxshiliqni bilmasang yaxshilarga qo‘shul, yaxshiliq tegrasig‘a evrula olmasang, yaxshilar tegrasida evrul”, “Bebon hamdamliqqa yaramas. Nopok mahramliqqa yaramas. Erning qilig‘i – sutning ilig‘i. Yasonchoq mardona bo‘lmas. Ko‘palak parvona bo‘lmas. Do‘st javridin ingranma”.

T. shoirning nasihatomuz, axloqiy qarashlarini baholashda muhim manbalardandir.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер*

Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.

S.G‘.

TANBURIY ALI KO‘CHAK – N. davrida yashagan va ijod qilgan sozandalardan. Tanburda kuylar ijro etgan va o‘z zamonining iste’dodli san’atkorlaridan biri sifatida e’tirof etilgan. U N. ishtirokida bo‘lgan majlislarga ham taklif qilib turilgan. Jumladan, 1492-y. vazir Majdiddin mashhur Purza bog‘ida N. sharafiga ziyofat uyushtirgan. Ziyofatga ulug‘ amirlar, a’yonlar tashrif buyurganlar. N. ham o‘z yaqin kishilari b-n kelgan. Zayniddin Vosifiy o‘z asarida ushbu majlis haqida batafsil ma’lumot bergan, ziyofatda qatnashgan sozandalarning nomlarini ham keltirgan. Ular orasida T.A.K. nomi ham qayd etilgan.

Ad.: *Зайниддин Восифий. Бадоеъ ул-вақоеъ. Наим Норқулов таржимаси. – Т., 1979.*

Q.E.

TANOSUB (ar. – daxldorlik, aloqadorlik) – fikrni bir-birini taqozo qiladigan, o‘zaro aloqador so‘z va tushunchalar orqali ifodalashga asoslangan ma’naviy san’at. Bunda shoir ma’no jihatidan bir-biriga yaqin so‘zlar yoki bir sohaga oid atamalardan foydalanadi. Aytaylik, bog‘ haqida so‘z borsa, bog‘bon, daraxt-u giyohlar, qushlar, osmon tilga olinsa, oy, quyosh, yulduzlar, sayyoralar, mahbuba ta’rif etilsa, uning yuzi, ko‘zi, qoshi, labi, xoli, qomati, zulfi tasvir doirasiga olib kiriladi. M-n, quyidagi baytida N. shaxmat o‘yini bilan bog‘liq shoh, farzin, rux (sipoh), arsa (shaxmat taxtasi), kaj yurish, rost yurish, maqom kabi termin va tushunchalar orqali shoh atrofini farzin kabi egri yuruvchi qing‘ir tabiatli muttahamlar egallab, ruh singari to‘g‘ri yuruvchi halol va pok kishilar bir chekkaga surilib qolishi haqidagi og‘riqli ijtimoiy muammoni yuksak badiiy talqin qilgan:

Shah yonin farzin kibi kajlar maqom etmish, ne tong,
Rastravlar arsadin gar tutsalar ruxdek qiroq.

Mana bu baytda esa shoir bulbul, gul, vafo hamda g‘uncha, shabnam, xandon so‘zlari vositasida shabnam donalari tufayli xandon ko‘ringan g‘unchadan vafo kutib aldangan bulbulning ahvoli tasviri misolida aslida ma’shuqaning soxta tabassumiga ishonib, undan umidvor bo‘lgan va oqibat pand egan oshiq holatini butun fojiasi bilan yoritib beradi:

Istamish bulbul vafo guldin, magarkim joladin,
Bag‘ri qotmish g‘unchaning,
balkim erur xandon anga.

Shu tariqa zabardast so‘z san’atkori, Shayxzoda ta’biri b-n aytganda, “bir voqeani va unga oid tafsillarni ham olib kelib, bosh mavzuga rioya qildira bilishda naqadar mohir ekanligi”ni namoyon etadi.

T. san’ati barcha she’riy janrlarda uchraydi. Jumladan, “X.” dostonlarida uning betakror namunalarini ko‘ramiz. “L.M.”dagi tabiat manzaralari tasvirida, “S.S.”dagi samoviy jismlar ta’rifi yoki tibbiy atamalar bayonida, “S.I.”dagi jang lavhalarini chizishda shoir mavzuga aloqador so‘z, tushuncha va atamalardan mahorat bilan foydalangan. Ba’zi ruboiylarini esa boshdan-oyoq tanosib san’ati asosiga qurgan. M-n:

No‘sh aylar emish qadahni jonona to‘la,
Soqiy, manga tut jomi harifona to‘la,

Quy, gar xud erur sipehr paymona to‘la,
Har nechaki xoli etsam, et yona to‘la.

Ko‘rinib turganidek, ruboiy may ichish b-n bog‘liq so‘z va tushunchalar asosiga qurilgan: soqiy, qadah, jomi harifona, no‘sh aylamoq, paymona, to‘la qilmoq (qadahni), xoli etmoq (qadahni bo‘shatmoq), quymoq. O‘zaro daxldor so‘zlar misrama-misra ruboiyda ifodalangan fikrni kuchaytirib borgan va yaxlit mazmun silsilasini hosil qilgan.

T. ba’zi adabiyotlarda muroot un-nazir, tavfiq, iytilof va talfiq deb ham yuritiladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-жилдлар. – Т., 2011; Шамси Қайси Розий. Ал-мўъжам. – Душанбе, 1991; Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға // "Ўзбек тили ва адабиёти", 2002, № 5; Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадоеъ ус-саноеъ (А.Рустамов тарж.). – Т., 1981; Шайхзода М. Таносиб // Асарлар. 4-жилд. – Т., 1972; Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Т., 2001; Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2010; Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Т., 1979.*

E.O.

TANSIQ UL-SIFOT (ar. – sifatlar silsilasi) – narsa-tushuncha, voqea-hodisani bir necha sifat bilan ta'riflash yoki tanqid qilishga asoslangan badiiy san'at. Bunda shoir ta'rif yoki tanqid qilar ekan, mavzu obyektiga xos sifat-xususiyatlarni ketma-ket jamlab keltiradi. Bu b-n tasvirlanmishni yo o'ta mubolag'a va tashbeh bilan ta'riflaydi, yo keskin tanqid qilib, uning ijobiy yoki salbiy qiyofasini yaratadi. Misra, bayt, bir necha baytlar, ba'zan, hatto butun boshli she'r ham ushbu san'at asosida yaratilishi mumkin. Tashbeh va mubolag'a bilan o'zaro bog'langan bu san'at vositasida muallif tasvir obyektini, uning muayyan jihatini keng va chuqur ochishga muvaffaq bo'ladi. Albatta, bunday sifatlar bir-birini taqozo qilib, bir-biriga bog'liq bo'lib, tasvir obyektini, yoki uning muayyan tomonini kengroq tavsiflash, bo'rttirib ko'rsatishga xizmat qiladi. T.S. "har bir asarning janr xususiyatlari va muallifning individual uslubi taqozosi bilan xilma-xil ko'rinishlarda va turli darajada namoyon bo'ladi" (Y.Is'hoqov).

O'tmish she'riyatida, xususan, ma'shuqa ta'rif-tavsifida T.S. san'atidan "ko'p va xo'b" foydalanilgan. "Mumtoz adabiyotdagi o'ta injalik, xayol parvozining mislsizligi lirik qahramonlar siymosida orzubop serbo'yoqlikni taqozo etadi. Shoir yorning suluvligi haqida qalam surar ekan, unga biror o'xshatish yoki sifatlash bilan cheklanmay, qalashtirib tashlagisi keladi" (V.Rahmonov). Zero, bu san'atning mohiyati bir necha sifatni bir-biriga ulab ketishdir. M-n, N. mahbubani ta'riflar ekan, har jihatdan go'zalligini ta'kidlash uchun uning barcha a'zolarini vasf etadi:

Ey orazi nasrin, sochi sunbul, qadi shamshod.

Ya'ni yuzi nasrinday oppoq, sochi sunbulday.

Halqa-halqa, qaddi shamshodday mavzun.

Shoirning mahorati shundaki, tashbeh u-n faqat daraxt va giyohlarni tanlaydi.

Mana bu bayt esa ma'shuqaning husn-u latofat jismi-yu ko'rinishini madh etadi:

Noz etki, sarv-u gulda, bal ins-u jinda yo'qtur,
Bu husn-u bu malohat, bu shakl-u bu shamoyil.

Salbiy qahramonlar tasvirida esa unga xos yomon xususiyatlar, illatlar jamlab ko'rsatiladi.

Ad.: *Шамси Қайси Розий. Ал-мўъжам. – Душанбе, 1991; Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадоеъ ус-саноеъ (А.Рустамов тарж.). – Т., 1981; Зеҳний Т. Санъати сухан. – Душанбе, 1967; Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т., 2006; Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Т., 2001; Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2010.*

E.O.

TARABXONA – Hirot shahrida Sulton Abulqosim Bobur tomonidan qurilgan bino. Mashhur Bog'i Safid hududida barpo etilgan. Bino uncha katta bo'lmasa ham, o'zining go'zalligi bilan ajralib turgan va me'moriy jihatdan diqqatga sazovor obidalardan hisoblangan. U ikki qavatli imorat bo'lib, ikkinchi qavati o'zgacha bir hashamatga ega edi. Mazkur qavatda to'rtta xona va katta zal bo'lgan. Ularning hammasining devorlari suratlar bilan bezatilgan. Bu suratlar keyinchalik Sulton Abusaid mirzo hukmronligi davrida uning buyrug'i bilan chizilgan. Ularda mazkur podshohning urushlari tasvirlangan edi.

Yuqorida aytilganidek, T.ni Abulqosim Bobur mirzo qurdirgan. T. joylashgan Bog'i safid

podshohning qarorgohlaridan biri bo‘lgan. N. juda yoshlik paytidan Abulqosim Bobur saroyida xizmat qilgan. Husayn Boyqaro davrida ham mazkur bog‘ shohning qarorgohi edi. Keyinroq u yerda Muzaffar mirzo va uning onasi Xadichabegim istiqomat qilgan. N. ularning huzuriga ham borib turgan. Binobarin, shoir T.da ko‘p marta bo‘lgan deb aytish mumkin.

Ad.: *Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 2002; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985.*

Q.E.

TARANJABIN – Navoiy asarlari matnida juda kam qo‘llangan fors tiliga xos atama. Lug‘atlarda yantoq shakari va yantoq shirasi singari ma’nolarni bildirishi yozilgan. T., asosan, tabobatda ishlatilgan. N. “L.M.” dostonining bosh qahramoni Majnunning ota-ona hajrida kuygan mungli qiyofasi va siniqqan ruhiyati, yomonlashgan sog‘lig‘i tasvirlangan XXXIII bobida T. atamasi mahorat b-n ishlatilgan. Biz bu bobda buyuk mutafakkir shoirning tib ilmidan ham xabardor bo‘lganiga amin bo‘lamiz. Bobda go‘yo tabib tilidan “Ich qabz topar taranjabindin” deb aytgan qat’iy xulosasi berilgan:

Sharbat kibi ichsa erdi kofur,
Tab’i o‘ti aylar erdi mahrur.

Chun naxli hayot bo‘ldi bebarg,
Sharbat bo‘lur elga sharbati marg.

Gar bersa tabib tuxmiyona,
Bil zahrgiyah butarga dona.

Ich qabz topar taranjabindin,
Safro ortar sikanjanbindin.

Bo‘lur ta’viz birla afsun
Bois bori ranj o‘lurg‘a afzun.

Navoiy T.ni “T.A.H.”da Muso (a.s.) b-n bog‘liq tasvirda ham qo‘llagan: “Muso (a.s.) duo qilib alarg‘a karak va taranjabin yog‘ar erdi. Va bir toshdin ikki bulog‘ joriy bo‘lub, alar serob bo‘lur erdilar...”. Ayrim lug‘atlarda, xususan, “Farhangi zaboni tojik” lug‘atida undan faqat tabiblargina emas, balki holvapazlar ham foydalanishi aytilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Шамсиев П., Иброҳимов С., Навоий асарлари луғати. – Т., 1972; Фарҳанги забони тожик. 1 том. – М., 1969.*

B.R.

TARDI AKS (ar. – aks tarzda, o‘rin almashtirib takrorlash, teskari tartibda qaytarish) − ta’kidlash, urg‘u berish maqsadida muayyan so‘z birikmasi yoki gapning tartibini o‘zgartirgan holda qayta takrorlashga asoslangan lafziy san’at. Mumtoz poetikaga oid asarlarda u aks, aks va tard, tabdil shaklida ham uchraydi. Bunda baytning birinchi misrasida qo‘llangan ikki so‘z yoki ibora ikkinchi misrada o‘rni almashtirilgan holda takrorlanadi. M-n, N. “M.N.”da Mirzobekning quyidagi baytini keltirar ekan: “Zulqofiyatayndur va qofiyalari tardi akskim, javob aytmoq bu faqir qoshida maholatdindur”, – deydi:

Ko‘zung ne balo qaro bo‘luptur –
Kim, jonga qaro balo bo‘luptur.

Shunga qaramay, u ayni baytni T.A. tarzida davom ettirib, tugallangan g‘azal sifatida “G‘.S.” devoniga kiritadi.

Majmu’i davoni dard qildi,
Dardingki, manga davo bo‘luptur...

Begona bo‘luptur oshnodin,
Begonag‘a oshno bo‘luptur...

Bu san’at misra doirasida ham qo‘llanishi mumkin:

Zulfi savdosi bu savdoyi boshinda ko‘pturur,
Bo‘lsa savdo ahli, tong yo‘q, ahli savdo birla do‘st.

Yoki:

Ki Haq taqdiridindur olam ichra
Yomon-u yaxshining yaxshi yomoni.

Bayt doirasidagi T.A.ni komil, misradagisini esa noqis deydilar.

Ma’no nuqtayi nazaridan ham T.A.ning ikki ko‘rinishi farqlanadi. Agar so‘z yoki ibora tartibi o‘zgartirib takrorlanganda yangi ma’no hosil bo‘lmay, balki birinchi misradagi mazmun boshqacharoq namoyon bo‘lsa, bunday T.A. aksi mutahodiy deb ataladi. Agar so‘z va iboralar tartibining aks takrori natijasida yangi ma’no hosil bo‘lsa, bunday T.A. aksi mujriy deb nomlanadi. M-n, N.ning quyidagi baytida birinchi misradagi fikr T.A. san’ati vositasida to‘ldirilgan, kuchaytirilgangina emas, dastlabki, fikrga qarshi yangi fikr ilgari surilgan:

Ne bo‘ldi dardima, ey bevafo, davo qilsang,
Vafog‘a va’da qilib, va’dag‘a vafo qilsang.

Y.Is’hoqov T.A.ning shakliy ko‘rinishlari va ma’naviy xususiyatlari, bir-birini istisno etmay, balki birgalikda namoyon bo‘lishidan kelib chiqib, uning xillarini quyidagicha tasnif qiladi: 1) komili mujriy (shakllangan tugallangan, ma’naviy yangi); 2) komili mutahodiy (shaklan tugallangan, ma’naviy takror); 3) maxaraji mujriy (shaklan tugallanmagan, ma’naviy yangi); 4) maxaraji mutahodiy (shaklan tugallanmagan, ma’naviy takror).

1. Xastadur jonim mening,
to bordi jononim mening,
Bo‘lmasun, gar borsa jononim mening,
jonim mening.
2. *Aytmon shohimni yo mohimni yetkur boshima,*
Ham mohi g‘ofilvashimni, shohi ogohimni ham.
3. Jon-u ko‘nglum baski ko‘rdi
ahli davrondin malol,
Jonima bo‘lmish ko‘nguldin,
ko‘ngluma jondin malol.

Ad.: *Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадоеъ ус-саноеъ (А.Рустамов тарж.). – Т., 1981; Зеҳний Т. Санъати сухан. – Душанбе, 1967; Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Л., 1972; Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Т., 1979; Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т., 2006; Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2010.*

E.O.

TARDOMAN (f.) – “tar” – “ho‘l” va “doman” – “etak” so‘zlaridan tuzilgan qo‘shma so‘z bo‘lib, “etagi ho‘l” degan ma’noni bildiradi. Ko‘z doim yoshlanib turish xususiyatiga ega bo‘lgani uchun ham mumtoz she’riyatda unga nisbatan shu sifatlash qo‘llaniladi. N. T. so‘zini yuzi qora, degan ma’noda ishlatgan:

Vaslig‘a ko‘z mahram ermastur,
netib mahram bo‘lur,
Ikki tar domanki, tanug‘lug‘ berurlar qonima.

Tasavvuf va tasavvuf adabiyotida basirat, ya’ni qalb ko‘zi xususida ancha keng fikr yuritilgan. Dunyoni qalb ko‘zi bilan ko‘rib, mohiyatni anglash g‘oyatda ahamiyatli sanalgan. Yuqoridagi baytning birinchi misrasidagi “ko‘z”dan maqsad zohir ko‘zi bo‘lib, basiratga teng kelolmagani bois T.dir va u oshiqni qoniga tashna qilib yuborgan.

Ad.: *Жумаева С. Ўзбек мумтоз шеъриятида рақам рамзлари ва уларнинг маъно талқини. – Т., 2010.*

S.J.

TARJE’BAND (ar. − qaytarish, takrorlash; she’rda bandning takrorlanishi) – mumtoz adabiyotdagi yirik hajmli she’r shakllaridan biri. T. bir necha banddan iborat bo‘lib, har bir band

“tarje’xona” deb ataladi va g‘azal singari (a-a, b-a, v-a…) qofiyalanadi. Bandlar oxirida o‘zaro qofiyalanuvchi bayt aynan takrorlanib barcha tarje’xonalarni o‘zaro bog‘lab turadi va vosila bayt deyiladi. T.lar odatda har biri 8 – 11 baytdan iborat bir necha banddan tashkil topadi. Fors-tojik adabiyotida Sa’diy Sheroziy, Hofiz Sheroziy, o‘zbek adabiyotida N., Ravnaq, Kiromiy, Munis, Ogahiy, Nodira, Uvaysiy, Avaz kabilarning T.lari ma’lum.

N. o‘zbek adabiyotida bu she’r shaklidan istifoda etib, jami 364 baytdan iborat 4 T. yozgan. Ular “Xazoyinul-maoniy”dagi har devonga bittadan joylashtirilgan. T.lar mavzu doirasi va umumiy ruhi bilan bir-biriga yaqin tursa ham, ularning har biri o‘ziga xos yo‘nalish va ifoda tarziga ega. Shuningdek, tuzilish jihatidan ham ular orasida ma’lum tafovutlar mavjud: dastlabki birinchi T. 10 band, har bandda 10 bayt, jami 100 bayt, ikkinchi T. 8 band, 11 – 12 baytdan 103 bayt, uchinchi T. 7 banddan, 8 bayt 56 baytdan iborat bo‘lsa, oxirigi T. 10 banddan tashkil topgan 11 baytdan jami 110 bayt. “G‘.S.” dagi birinchi T. Irfoniy xarakterdadir. Uning birinchi bandi quyidagicha:

Ketur soqiy, ul mayki, subhi alast,
Aning nash’asidin ko‘ngul erdi mast.
Mayekim, qilur, qo‘ysalar jom aro,
O‘zi mastu kayfiyati mayparast.
Eshit sarguzashteki, bugun manga
Necha mayparast o‘ldilar hamnishast.
May olmoqqa pir-u mug‘on jazbasi
Meni chekdi andoqki, mohini shast.
Qilib xirqa may rahni-yu zarfining
Etib og‘zini mum ila sangbast.
Kelur erdim egnimda mayliq sabu,
Bo‘lub to‘quz aflok ollimda past.
Ki ogoh o‘lub to‘sh-to‘shimdin qabab,
Manga toptilar ihtisob ahli dast.
Shikastim mening oncha ermas edi,
Ki may zarfi topti aroda shikast.
Chu sindi sabu, choraye topmadim,
Meni muflisi uru giryoni mast.
Xarobot aro kirdim oshuftahol,
May istarga ilgimda sing‘on safol.

N.Komilovning yozishicha: “Tarje’bandni o‘qir ekanmiz, muallifning rozi dilidan ogoh bo‘lamiz, chunki u yoshligidan boshlab har xil ilmlarni o‘rgangani, har xil “sarguzasht”ni boshidan kechirib, dunyo va uning odamlari haqida ko‘p mulohaza yuritganini yozadi. Shoh-u sultonlar dabdabasi, shayx ul-islom-u ulamo-umarolar, manman degan donishmandlar suhbati uni qoniqtirmagan, ularning birortasi ham inson qarshisida paydo bo‘ladigan minglab savollarga javob berishga qodir emas edi. “Nazar ayla bu korgoh vaz’iga, Ki ortar tamoshosida hayratim”, deydi shoir. Olam mohiyati nimadan iborat, inson nega dunyoga keladi va yana nega ketadi? Nega quyosh har tong nur sochib chiqadi, falak doim gardishda? Nega inson zoti bir xil emas? Firibgarlik, qonxo‘rlik, riyo, yolg‘on qayerdan kelib chiqqan? Bu va bunga o‘xshagan savollar Navoiyni hamisha qiynab kelgan. Na o‘zimning “sa’yi va fikratim”, “na kasbi ulum etti hal mushkulim”, deb yozadi u. Yuragida har xil andeshalar, shubhalar kezgani, lekin zamona tafakkuri doirasidan batamom chiqib ketishga jur’at qilolmaganini eslatadi. Va oqibatda:

Mening boshima bas qotig‘ tushti ish,
Chu toq o‘ldi bu dard ila toqatim, –

deya o‘zini tasavvuf bilan ovutadi, ya’ni “may bila ulfat” tutinadi”. Bu o‘rinda may o‘zlik, ilohiy zavq-u shavq, irfoniy fayz ma’nolarini anglatadi.

T. mutaqoribi musammani mahzuf va mutaqoribi musammani maqsur vaznlarida bitilgan:

Mutaqoribi musammani mahzuf
faulun faulun faulun faul
V – – V – – V – – V –
Mutaqoribi musammani maqsur
faulun faulun faulun faal
V – – V – – V– – V ~

Yuqoridagi ikki vazn o‘rni-o‘rni bilan almashinib qo‘llangan. T.ning birinchi bandida qofiyadosh bo‘lib kelgan juft misralar (alast, mast, mayparast, hamnishast, shast, sangbast, past, dast,

shikast, mast) va 1-, 2-, 5-, 6-bandlar mutaqoribi musammani maqsur (faulun faulun faulun faul) vaznida, 3-, 4-, 7-, 8-, 9-,10-bandlari esa Mutaqoribi musammani mahzuf (faulun faulun faulun faal) vaznida yozilgan.

N.ning "N.Sh." devoniga kiritilgan yana bir T.i yigitlik davriga mansub. T. quyidagicha boshlanadi:

Jahon qasrig'adur su uzra bunyod,
Chu yo'q bunyodi, andin bo'lmag'il shod.

T.ning har bir band oxirida takrorlanuvchi vosita bayti quyidagicha:

Baqosizdur jahon ra'nosi, valloh,
Jahon ra'nosi yo'qkim, mosivalloh.

T. aruzning hazaji musaddasi mahzuf va hazaji musaddasi maqsur vaznlarida bitilgan:

Hazaji musaddasi mahzuf
mafoiylun mafoiylun faulun
V – – – V – – – V – –
Hazaji musaddasi maqsur
mafoiylun mafoiylun mafoiyl
V – – – V – – – V – ~

N. devonidagi uchinchi T. ishqiy mavzudadir. Unda lirik qahramonning ishq iztiroblari ma'shuqaga murojaati orqali ifoda etilgan:

Ey, kirpiki nesh-u ko'zi xunxor
Jonimni necha qilursen afgor?

La'ling g'amidin ko'ngulda erdi,
Har qonki, sirishkim etti izhor...

"Yodingni qilay harifi majlis,
Fikringni etay ko'ngulga munis".

T. aruzning hazaji musaddasi axrabi maqbuzu maqsur vaznida yozilgan:
maf'ulu mafoilun mafoiyl
– – V V – V – V – ~

To'rtinchi T. ham mazmunan birinchi T.ga yaqin va quyidagicha boshlanadi:

To xarobot aromen durdioshom
Mastlig' birla ishim aysh mudom.

Vosita bayt:

Yana mug' dayriga kirdim sarmast,
May tut, ey mug'bachayi bodaparast.

T.da hafif bahrining "solimi maxbun" shahobchasi vaznlari faol ishtirok etgan:
foilotun mafoilun failun
–V – – V – V – V V –

A.Hayitmetov, R.Orzibekov, T.Boboyev, A.Hojiahmedov, E.Ochilov, D.Yusupova, D.Kazakbayeva kabi adabiyotshunoslarning tadqiqotlarida N. T.lari haqida fikr bildirilgan.

Ad: *Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға // ЎТА, 2002. № 2; Айний С. Асарлар. 8-жилд. – Т., 1967; Ўзбек адабиёти тарихи. 5 томлик, 2-том. – Т., 1977; Адабиёт назарияси. 2 жилдлик. – Т., 1979; Адабий турлар ва жанрлар. 3 жилдлик, 2-жилд. – Т., 1992; Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Т., 1983; Комилов Н. Тасаввуф. – Т., 1996; Очилов Э. Таржеъбанд // ЎзМЭ. 8-жилд. – Т., 2004; Казакбаева Д. Ўзбек мумтоз адабиётида таржеъбанд ва таркиббанд жанрларининг такомили: филол.фан.б.фалс.док..дисс. – Т., 2021.*

M.A.

TARYOK (TIRYOK) (ar.) – 1. afyun, bang, ma'jun. 2. She'riy obraz. Taryok zaharlanishga qarshi xalq tabobatida qo'llanilgan sarxush qiluvchi modda. O'tmishda eng sifatli taryoklar Iroq va Bag'dodda tayorlangan. Shuningdek, ilonning zahri olinib, turli giyohlar bilan aralashtirib, ishlov berilgan va zaharga qarshi dori tayyorlangan. Bu ham taryokning bir turi sanalgan.

Rivoyatga ko'ra, Rum Qaysari Hazrat Umar (r.a.)ga ba'zi hadyalar yuboradi. Ular orasida bir

tomchisi insonni o‘ldirishi mumkin bo‘lgan zahar solingan shisha va unga qarshi tayyorlangan taryok ham bor edi. Hazrat Umar (r.a.) sovg‘alarni keltirgan elchining ko‘rsatmasi va tavsiyasiga ko‘ra shishadagi zaharning hammasini ichadi. Biroq zahar u zotga sira ta’sir qilmaydi. Chunki undan keyin iste’mol qilingan taryok zaharning kuchini kesgan edi. Umuman, mumtoz adabiyotda, N. she’riyatida ham taryok g‘am-g‘ussani mahv etuvchi, lirik qahramon – oshiqni hijron va ayriliq azobidan xalos qiluvchi timsol sifatida qo‘llanadi:

Ich, Navoiy, mayki fahm ettuk tabibi ishqdin,
G‘ussavu g‘am zahrig‘a taryok
emish yoquti nob.

Ad.: *Искандар Пала. Муттоз шеърият қомусий сўзлиги. – Истанбул, 2004.*

M.A.

“TARIXI ANBIYO VA HUKAMO” (“Payg‘ambarlar va hakimlar tarixi”) – N. ning payg‘ambarlar va hakimlar tarixini yoritishga bag‘ishlangan nasriy asari. Payg‘ambarlar esa nasroniy, yahudiy va islom dinlarining tarixida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan zotlardir (qarang: payg‘ambarlar).

N. bu asarini yozish u-n o‘ziga qadar yaratilgan tarix va siyar kitoblarini ko‘zdan kechirib chiqqan. Shoir “ahli tafsir debdurlarkim”, “Banokatiy tarixida debdurkim”, “Tarixi Ja’fariy”-da bitibdurkim”, – deb turli kitoblarga murojaat etadi. Payg‘ambarlar hayotining ayrim qirralarini yoritishda ehtiyot bo‘ladi. Chunki:

Tarix ahlining ixtilofi ko‘ptur,
“Shahnoma”ning ul nav’ki lofi ko‘ptur.
Ba’zi mutaassib el gazofi ko‘ptur,
Sen yozg‘ali ham nuktayi vofi ko‘ptur.

N. mazkur asarini yozishda hushyorlik b-n yondashib, birlamchi manba sifatida Qur’oni Karimga, tafsirlarga murojaat etadi. Kalomi majidda kelgan payg‘ambarlar haqidagi qissalarga e’tibor qaratib, kerakli o‘rinlarda oyatlardan iqtiboslar keltiradi va fikrini dalillaydi. Ayrim o‘rinlarda Ibni Abbos (r.a.) kabi mashhur shaxslarning naqllariga va o‘zi ishonchli deb bilgan kitoblarga suyanadi.

Odatda, payg‘ambarlar voqealariga bag‘ishlangan kitoblar hajman yirik bo‘ladi. N. ularning qissalarini ixcham va muxtasar tarzda, ammo ilmiy asosda yoritib berishni maqsad qilib qo‘ygan. Chunki ba’zi o‘rinlarda ma’lumotni ixchamlashtirib: “...va bu qissaning sharhin mabsutroq kutubdin ma’lum qilsa bo‘lur...” deyish bilan kifoyalanadi.

Bu mo‘jazroq asar ikki qismdan iborat. N. payg‘ambarlar qissasini birinchi odam va ilk payg‘ambar bo‘lgan Odam (a.s.) voqeasini yoritish bilan boshlaydi va Jarih rohib voqeasi bilan tamomlaydi. Oltmishdan ziyod payg‘ambarlar va ularning avlodlariga oid shaxslarning nomi keltiriladi. Birinchi qismda Odam (a.s.)dan tortib, Nuh, Ya’qub, Yusuf Muso, Iyso (a.s.) kabi ma’lum va mashhur payg‘ambarlarning hayoti, ularning xalq va jamiyat o‘rtasida olib borgan diniy, ma’rifiy va axloqiy xizmatlari, hidoyatga tashviq qilganlari, ko‘rsatgan mo‘jizalari, qarshilik qilgan guruhlar bilan olib borgan mujodala va kurashlari bayon qilib berilgan. Qissa davomida ba’zi payg‘ambarlar haqida ko‘proq, ayrimlari xususida esa ozroq hikoya qilingan. Payg‘ambarlar qatorida nabiy bo‘lmagan, ammo saltanatni yuritgan shaxslar haqida ham zarur ma’lumotlar keltirilib o‘tiladi. M-n, Shis (a.s.)ning o‘g‘li Anush payg‘ambar bo‘lmasa ham, odil hukmron, saxiy va valiy ekani, xurmo daraxtini ekishni va sadaqa berishni u boshlab bergani, Idris (a.s.) ning otasi Yazid ibni Mahloyil esa yurtni boshqarish jarayonida ariqlar qazgani, qush go‘shti va “bolig‘ eti emak”ni ixtiro qilgani, o‘g‘il-qizlari ko‘p bo‘lgani, to‘qqiz yuz oltmish ikki yil umr ko‘rgani rivoyat qilinadi. Shuningdek, asarda Barsisoy obid, Shamsun obid, Jarih rohib kabi tarixiy shaxslar bilan bog‘liq voqealarning ibratli jihatlari ko‘rsatib beriladi. N. payg‘ambarlar tarixini bayon qilish orqali insoniyat tarixini, Odam (a.s.)dan Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)

ga qadar necha yil o‘tganiga ham to‘xtaladi: “Va rivoyat budurkim, Odam zamonidin Nuh (a.s.) zamonig‘acha iki ming besh yuz yildur va Nuh davridin Ibrohim Xalil salavotur-rahmon alayh davrig‘acha ming besh yuz yil va Ibrohim (a.s.) ahdidin Muso (a.s.) ahdig‘acha to‘rt yuz oltmish yil va Muso (a.s.) chog‘idin Iso chog‘igacha ming to‘quz yuz o‘tuz yil va Iso (a.s.) ayyomidin Hazrat Risolat (s.a.v.) farxunda ayyomig‘acha yuz sekson yil voqe’dur”.

N. har bir payg‘ambar haqida so‘z yuritganda qissadan hissa sifatida biror ibratli she’r ilova qiladi va uning mazmunida ikki narsani nazardan qochirmaydi. Birinchisi, she’rda shu payg‘ambarga tegishli biror xislat yoki voqega ishora etsa, ikkinchisi inson kim bo‘lishidan qat’i nazar o‘limga mahkum ekanligini uqtiradi.

N. payg‘ambarlar haqida so‘z yuritar ekan, “Olimlar payg‘ambarlarning merosxo‘rlaridir”, “Ummatimning olimlari Bani Isroilning payg‘ambarlari kabi” hadislarni tez-tez tilga olib turadi va olimlikning sharafli ekaniga diqqatni qaratadi. Sharqda hakimlikning darajasi esa olimlikdan yuqori turgan va hakimlik donishmandlik timsoli bo‘lgan. Ilm-u ma’rifatda yuksak bo‘lgan, hikmat sohibini hakim deyishgan. N.ning payg‘ambarlardan keyin hakimlarni zikr qilishi asardagi mantiqiylikni, davomiylikni ta’minlagan, deyish mumkin.

Ikkinchi – “hukamolar zikri” qismida Fishog‘urs, Jomosp, Aflotun, Aristotolis, Suqrot, Buqrot kabi o‘n uch nafar hakimlar haqida ma’lumot berib o‘tadi. N.ning “S.I.” dostonida esa yunon hakimlarini badiiy talqin qilingan timsollarini kuzatamiz.

N. hukamolar tavsiflarini bergandan so‘ng ularning hikmatli so‘zlaridan namunalar beradi. She’riy parchalar bilan fikrini xotimalaydi.

Ma’lumki, payg‘ambarlar va hukamolar tarixi Sharq xalqlari dini, madaniyati, san’at va adabiyotidan chuqur joy olib kelgan. Mumtoz adabiyotimiz vakillari o‘z asarlarida ularning nomlarini timsol sifatida yoki ayrim fazilatlarini ibrat tarzida qalamga olishgan.

N. ham bir qator asarlarida Dovud, Sulaymon, Muso, Iso kabi payg‘ambarlarni hamda Luqmon, Suqrot, Aflotun kabi hakimlarning nomlarini tilga olganini inobatga olsak, shoirning “T.A.H.” asari uning she’riyatini tushunishda yaqindan yordam beradi. Zero, payg‘ambarlar hayotini, tarixini bilmasdan turib, shoir nazarda tutgan maqsad va muddaolarni, talmehlarni teran anglay olmaymiz.

N. payg‘ambarlarning nomini qo‘llashda va ular haqidagi ixtilofli ma’lumotlarni yoritishda o‘ta ehtiyotkor bo‘lgan. M-n, Luqmoni hakimning payg‘ambarligida shubha borligi u-n uni ham payg‘ambarlar, ham hakimlar qatorida zikr etadi.

N. payg‘ambarlar haqidagi ba’zi ma’lumotlarni boshqa asarlarida ham berib o‘tadi. Misol uchun “T.M.A.”da Dovud (a)ning Kaykovus zamonida, Uzayr (a)ning Luhrosb binni Arund saltanati davrida yashaganliklarini aytadi.

N. tilshunos, adabiyotshunos, musiqashunos, faqih, mutasavvif bo‘lish b-n birga tarixchi hamdir. U “T.A.H.” asari orqali tarixnavislikdagi, xususan, islom tarixini yoritishdagi mahoratini ham namoyon etgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Ўзбек адабиёти тарихи. 5 жилдлик, 2-жилд. – Т., 1977; Ислом Энциклопедияси. – Т., 2004; Носириддин Бурҳониддин Рабғузий. Қиссаси Рабғузий. 1-2-жилдлар. – Т., 1990–1991; Раҳмутуллоҳ қори Обидов. Пайғамбарлар тарихи исломият тарихидир. – Т., 2005.*

S.R.

“TARIXI GUZIDA” – 1330-y.da Xoja G‘iyosiddin Mahmud ibn Rashiduddin Fazlulloh Mustavfiy Qazviniy tomonidan fors tilida yozilgan. Kitob muqaddima, olti bob – har bob bir necha fasl va xotimadan iborat. T.G. o‘tgan payg‘ambarlar va fazl ahllari, islomdan oldingi ajam podsholari, Muhammad (s.a.v.) va as’hobi kiromlari, safforiylar, somoniylar, g‘aznaviylar,

g‘uriylar, saljuqiylar, xorazmshohlar, atobakiylar, ismoiliylar, karmina karaxoniylar va lur hokimlari, mug‘ullar, olim-u donishmandlar sharhi holi va shayxlar-u shoirlar tarixidan iborat.

Muallif 6-bobda Qazvin shahrining arablar tomonidan egallanishi, aholining islomga kirish holati, shahardagi obodonlashtirish ishlarining keng ko‘lamda bajarilishi, madrasa-yu masjidlarning tezda barpo etilishi, daryo va bog‘larning qaytadan obodonlashtirish ishlari haqida mufassal ma’lumot bergan.

T.G. XIII–XIV asr voqealarini o‘rganish u-n asosiy manba, chunki muallif tasvirlagan voqealarning shohidi bo‘lgan yoki ishonchli kishilardan eshitgan.

N. ham “T.M.A.” tarixiy kitobini yozishda mazkur asardan foydalanadi.

T.G. jahonning bir necha tillarida tajima qilingan.

Ad.: *Роҳномаи адабиёти форсий. – Теҳрон; Сатторий А. Перседская литература. – М.,1976.*

Muh.A.

“TARIXI MULUKI AJAM” – Ajam podshohlari tarixi N.ning Astroboddan Hirotga qaytgach, 1488-y.da yozgan birinchi asari nomi. Aniqrog‘i, N. “T.M.A.” nomi b-n maxsus asar yozmagan. 80-yillarning oxirlarida “Zubdat ut-tavorix” (“Tarixlar qaymog‘i”) nomi bilan bir tarixiy asar yozgan. “Zubdat ut-tavorix”ning birinchi qismini N.ning “T.A.H.” asari, ikkinchi qismini “T.M.A.” tashkil etadi. “T.M.A.”, “T.A.H.” asarining davomi bo‘lgani u-n unda hamd, na’t va asarning yozilish sabablari b-n bog‘liq an’anaviy kirish qismi yo‘q. Shoir gapni bevosita Eron (Ajam) podshohlari tarixidan boshlab ketavergan: “Ajam tarixida furs salotinini to‘rt tabaqa qilibturlar. Va alar o‘n bir kishidurlarkim, saltanat qilibtur...”

“T.M.A.” Eron podshohlari tarixini yoritishga bag‘ishlangan. Bu asarni yaratishda N., o‘z e’tirofiga ko‘ra, Jaloliyning “Jome’-ut-tavorix”, Muhammad G‘azzoliyning “Nasihatil-muluk”, Hamdulloh Mustavfiyning “Go‘zida”, Banakotiyning “Tarixi Banakotiy”dan, “Tarixi Tabariy” kabi tarixga doir asarlardan, xususan Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma”, Nizomiy Ganjaviyning “Xusrav va Shirin”, “Iskandarnoma” dostonlaridan ko‘p narsa o‘rgandi, ularga suyandi. N.ning bu asarni yozishdan kuzatgan asosiy maqsadi boy Eron podshohlari tarixi misolida podshoh va podshohzodalarni, o‘z davri kishilarini adolat va ezgulik ruhida tarbiyalash edi.

U fors hukmdorlari tarixini 4 tabaqaga bo‘ladi: peshdodiylar, kayoniylar, ashkoniylar, sosoniylar. Peshdodiylar sulolasidan 11 kishi hukmronlik qilgan: Hushang, Tahmuras, Jamshid, Shaddod va Shadid, Zahhok, Faridun, Manuchehr, Navdar, Afrosiyob, Zob, Girshosb. Ilk saltanat sohibi sifatida Kayumarsni ham ko‘rsatadilar, lekin uning borasida ixtilof ko‘p, deydi shoir. Kayoniy hukmdorlar 9 kishidan iborat bo‘lgan: Kayqubod, Kaykovus, Kayxisrav, Luhrosb, Gushtosb, Bahmon, Humoy, Dorob, Dorob binni Dorob. Iskandarni ham ayni toifaga qo‘shsalar-da, bu borada ixtilof ko‘p. Ashkoniy hukmdorlar soni turli manbalarda turlicha ko‘rsatiladi. N. o‘z asarida ularning 15 tasini keltiradi: Ashk binni Doro, Shopur binni Ashk, Bahrom binni Shopur, Yalosh binni Bahrom, Hurmuz binni Yalosh, Anush binni Yalosh, Gudarz binni Uyg‘ur, Eron binni Yalosh, Narsi binni Gudarz, Hurmuz binni Yalosh, Firuz binni Hurmuz, Xusrav binni Firuz, Yalosh binni Firuz, Yalosh binni Yalosh, Arduvon binni Yalosh. Sosoniy hukmdorlar adadi xususida ham manbalarda turli fikrlar mavjud. Ularning adadini 28 tadan 32 tagacha ko‘rsatadilar. N. ulardan quyidagilar xususida ma’lumot beradi: Ardasher Bobak, Shopur binni Ardasher, Hurmuz binni Shopur, Bahrom binni Hurmuz, Bahrom binni Bahrom, Bahrom binni Bahrom binni Bahrom, Narsi binni Bahrom, Hurmuz binni Narsi, Shopuri Zulaktof, Ardasher binni Hurmuz, Shopur binni Shopur, Bahrom binni Shopur, Yazdijird binni Bahrom, Bahrom binni Yazdijird, Yazdijird binni Bahrom, Hurmuz binni Yazdijird, Firuz binni Yazdijird, Yalosh binni Firuz, Qubod

binni Firuz, No‘shiravoni odil binni Qubod, Hurmuz binni Anushirvon, Bahromi Cho‘bina, Xisrav Parviz binni Hurmuz, Sheruya binni Xisrav, Ardasher binni Sheruya, Shahrirod, Turondo‘xt, Ozarmdo‘xt, Kisro Mehrijis.

N.ning bu asarni yozishdan kuzatgan maqsadi faqat ijtimoiy-siyosiy yo‘nalishdagina bo‘lmay, ilmiy-adabiy yo‘nalishda ham edi. Shuning u-n N. “T.M.A.”da, avvalo, Eron podshohlari tarixini yangidan sistemaga solishga, bundagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etishga harakat qilgan. N. “Tarixi Tabariy” va Firdavsiy “Shohnoma”sini mavjud adabiyot ichida eng mo‘tabari hisoblagan. N. davridagi adabiy muhitda badiiy ijodda Eron podshohlari tarixiga murojaat etish hamon muhim o‘rin tutar, Xusrav, Doro, Bahrom, Sheruya, No‘shirvon kabilarning hayoti va podshohlik faoliyatini yaxshi bilish har bir qalam ahlidan talab qilinar edi. Ya’ni Eron podshohlari tarixini puxta bilmay turib, undagi obrazlar mohiyatini to‘la tushunish qiyin edi. N. satrlarida, xususan, “X.” dostonlaridan “F.Sh.”, “S.S.”, “S.I.”da ham bu xil obrazlar o‘z qiyofasi, g‘oyaviy-badiiy ifodasiga ega. Binobarin, “T.M.A.” N. “X.”sini tushunishga ham muhim manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

N. asarda Eron podshohlarining, deyarli, hammasiga, ya’ni birinchi afsonaviy podshoh Kayumarsdan boshlab, sosoniylarning so‘nggi vakili, Eronning arablar tomonidan bosib olinishida o‘ldirilgan Yazdi Jurdi Shahriyorgacha tavsif beradi. Qaysi podshoh tarixda qanday yaxshi ish qilib, qanday yaxshi nom qoldirgan? Odil bo‘lganmi yoki zolim bo‘lganmi? Shohlarning faoliyatiga baho berishdagi N.ning asosiy o‘lchovi, tarixga baho berishdagi bosh tamoyili shundan iborat. Ya’ni “T.M.A.”ning mazmunini ham N.ning xalqparvarlik va gumanistik g‘oyalari nurlantirib turadi. Asarda jamiyatda tinchlik, osoyishtalik va haqiqat o‘rnatish asosan adolatli hukmdorga bog‘liq, degan nazariy qarash ilgari suriladi.

Asarda har podshoh to‘g‘risidagi xulosasini N. to‘rt misralik she’r b-n ifodalagan. Shoir, m-n, jahon mulkini o‘z mulki deb gumon qilgan bosqinchi Afrosiyob haqida shunday deydi:

Chu Afrosiyob o‘ldi olam shahi,
Emas erdi ish sirrining ogahi.

Jahon mulkin o‘z mulki qildi gumon.
Ani ham chiqordi arodin jahon.

N. odil podshoh Zob bin Tahmosb to‘g‘risida quyidagicha yozadi:

Chu ofoq mulkiga shoh o‘ldi Zob.
Tuzotti nekim buzdi Afrosiyob.

Erur zulmdin yaxshiroq adl ishi,
Chu qolmas na zolim, na odil kishi.

“T.M.A.” N.ning shohlar va sulolalar tarixi, umuman, insoniyat va turli dinlar tarixini, tarixiy asarlarni yaxshi bilgan keng qamrovli donishmand muarrix ekanligini ko‘rsatadi. Asar shohlik, umuman umrning o‘tkinchiligi haqidagi falsafiy mulohazalar va Husayn Boyqaro tarixini yozish haqidagi orzu b-n nihoyasiga etadi. “T.M.A.” yozilish uslubining soddaligi, ravonligi bilan o‘sha davrdagi ko‘p tarixchilarning balandparvoz va jimjimador uslubidan sezilarli farq qiladi. XV asrning mashhur tarixchisi Mirxond “Ravzatus-safo”ni yozishga kirishar ekan, N. unga tarix haqida yozilgan kitob hammaga – shohga ham, gadoga ham tushunarli uslubda yozilishi kerak, – deb o‘rgatgan. Navoiyning bu asari tarixni, o‘zbek adabiyoti tarixini o‘rganishda hamon o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Ўзбек адабиёти тарихи. 2 том. – Т., 1977; Сирожиддинов Ш., Юсупова Д., Давлатов О. Навоийшунослик. – Т., 2018.*

Ab.H., M.A.

“TARIXI RASHIDIY” – Muhammad Haydar mirzo qalamiga mansub tarixiy asar. 952 hijriy (1546) y.da Kashmirda yozib tamomlangan. Asar fors tilida bitilgan bo‘lib, mo‘g‘ul xoni Abdura-

shidxonga bag‘ishlangan. “T.R.” Mo‘g‘uliston, Markaziy Osiyo va qo‘shni mintaqalarda XV asr va XVI asrning birinchi yarmida bo‘lib o‘tgan tarixiy voqealarni qamrab oladi.

Ushbu asar ikki qismdan iborat: Birinchi qismda To‘g‘luq Temurxondan to Abdurashidxongacha o‘tgan mo‘g‘ul xonlari haqida ma’lumot beriladi. Ikkinchi qismda muallifning boshidan kechirganlari hamda temuriylar, shayboniylar bilan bog‘liq tarixiy voqealar bayon etilgan.

Muallif o‘sha davrdagi adabiy, madaniy hayotga ham to‘xtalib o‘tgan, ko‘plab olimlar, shoirlar, xattotlar va san’atkorlarning nomlarini zikr etgan, jumladan, N. shaxsiyati va ijodi haqida ham ma’lumot bergan. Haydar mirzo N.ning turkiy she’riyatdagi o‘rnini yuqori baholaydi, uning she’rlari katta shuhrat qozonganini e’tirof etadi. Forsiy devon tuzib, she’rlarida “Foniy” taxallusini qo‘llagani haqida to‘xtaladi. “Tuhfat ulafkor” qasidasining matla’sini misol tariqasida keltirib, uning Xusrav Dehlaviy “Daryoyi abror-”iga javob ekani va hech bir shoir Xusrav qasidasiga bunchalik mukammal javob bita olmaganini alohida ta’kidlaydi. Asarda N.ning Abdurahmon Jomiyga yuborgan bir ruboiysi va Jomiyning unga javoban bitgan she’ri ham keltirilgan.

Mirzo Haydar N.ning davlat arbobi sifatidagi xizmatlarini ulug‘lab, xalq farovonligi u-n qilgan ishlari, qurdirgan binolari haqida iliq fikrlar yozadi: “U o‘ziga yordam so‘rab murojaat qilgan muhtojlarga, olim-u fozillarga qudrati yetgancha homiylik qildi. O‘z mulkidan tushgan barcha daromadni el-yurt farovonligi uchun xayriya ishlariga sarfladi. U xonaqohlar, masjidlar, boshqa imoratlar qurdirdiki, ular hozirgacha saqlangan”.

Mirzo Haydarning N. shaxsiyati haqidagi mulohazalari, ayniqsa, undagi nozik mijozlikni qanday izohlagani juda maroqli: “U behad zukko va zakovatli kishi edi. U boshqalarda ham shunday fazilatlar bo‘lishini istar, bunga erishish qiyin bo‘lar, shundan odamlarda ginaxonliklar sodir bo‘lardi”.

Asarda N.ning ijodiy merosi haqida ma’lumot berilar ekan, o‘zbekcha devonlari soni uchta deb yanglish ko‘rsatilgan. Asar mualifi tomonidan ulug‘ shoirning ko‘plab asarlari borligi yozilgan, biroq kitobda ularning nomlari keltirilmagan.

Ad.: *Муҳаммад Ҳайдар мирзо. Тарихий Рашидий. – Т., 2010; Заҳириддин Муҳаммада Бобур. Бобурнома. – Т., 2002; Бобур энциклопедияси. – Т., 2014.*

Q.E.

“TARIXI TOMM” (“Tarixi Roqimiy”, “Tarixi kasira” va boshqa nomlar b-n ham mashhur) – Subhonqulixon (hukmronlik yillari – 1681–1702) davri olimlaridan Mullo Sharafuddin A’lam ibn Nuriddin Oxund ibn Mullo Farhod qalamiga mansub asar. Asli Andijondan bo‘lib, yoshligida otasi b-n birga Samarqandga ko‘chib kelgan. Otasi singari fozil kishi bo‘lib, katta a’lam martabasiga ko‘tarilgan. Shoir, she’rshunos va fasohat sohibi sifatida shuhrat qozongan. Roqim taxallusi b-n she’rlar yozgan.

“T.T.”da Bahouddin Naqshband, Hofiz Sheroziy, Kamol Xo‘jandiy, Amir Temur, Xoja Muhammad Porso, Qosim Anvor, Mirza Ulug‘bek, Shohiy Sabzavoriy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Xoja Ahror, Abdurahmon Jomiy, N. kabi ko‘plab tarixiy shaxslar hayoti, faoliyati va ijodi haqida muxtasar ma’lumot berilib, ularning vafotiga bag‘ishlab yozilgan ta’rixlar keltirilgan. Jumladan, N.ni avval ta’riflaydi: “suxanoroylik iqlimining sultoni Nizomiddin Amir Alisherki, taxallusi Navoiydir, Sulton Husayn Mirzo saltanati davrida vazirlik mansabidan amirlik martabasiga yetgan edi. Ammo vazirlik ishlarida shu darajada mahoratga ega ediki, sobit tadbiri bilan davlat oyinasi yuzidan kudurat zangini aritdi. Aqli va tajribaga boyligidan Atorud dabiri undan saboq olardi”. Shundan keyin uning “X.” yaratgani”, “M.N.” tazkirasini tuzgani, devon tartib bergani, qator risolalar yozgani, 1441-y.da tug‘ilib, 1501-y.da vafot etgani, qabri o‘zi bino qilgan Masdjidi jome’ yonida ekani haqida ma’lumot beradi hamda Aminiy taxallusli sulton Ibrohim, Muhammad Shoh ibn Xovandshoh, yana zamona fozillaridan

ikki kishining – jami 4 kishining shoir vafoti munosabati b-n yozgan ta’rixini keltiradi. Jumladan, Aminiy shunday ta’rix bitadi:

Miri dinparvar Alisher on, ki bud
Aql-u donish, mulku millatro panoh.

Dar hidoyat hodiyi rohi Xudo,
Dar valoyat voliyi dini Iloh.

Oqibat z-in tangno omad batang,
Shud so‘i firdavs boshad izz-u joh.

Dar jinon justand az ta’rixi o‘,
Guft ravonash: “valoyat intiboh”.

“Dinparvar amir Alisher aql, ilm, mamlakat va millatning panohi edi. Hidoyatda Haq yo‘lining rahnamosi, valiylikda Olloh dinining sohibi edi. Oqibat bu tang (tor) dunyodan batang (bezor) bo‘lib, izzat-u hurmat bilan oliy jannat sari ketdi. Jannatda uning ta’rixini izlaganlarida darhol javob keldiki: “valoyat intiboh”, ya’ni “valiylikdan ogoh”.

Bu iborani abjad hisobiga aylantirganda hijriy – 906, milodiy – 1501-yil kelib chiqadi.

Zamon fozillaridan biri: “So‘z iqlimida Kayxusrav edi, vafoti ta’rixi ham “Kayxusrav” bo‘ldi”, – deb lutf etadi:

Bud Kayxusrav dar iqlimi suxan,
Gasht az on ta’rixi o‘ “Kayxusrav”.

“Kayxusrav” so‘zi ham abjad hisobida milodiy 1501-y.ga to‘g‘ri keladi.

Kitobda N. davri va adabiy muhitining Husayn Voiz Koshifiy, Mavlono Fasihiddin, Abdulg‘afur Loriy, Kamoliddin Binoiy, Osafiy, Abdullo Hotifiy, Abdullo Marvorid, Fig‘oniy kabi shoir-u fozillari haqida ham ma’lumotlar keltirilgan.

“T.T.” 1864–1865-yy.da Xivada Muhammad Yusuf Rojiy tomonidan “Tarixi kibor” nomi b-n tarjima qilingan. Asarning yana bir tarjimasi 1998-y.da H.Bobobekov va N.Norqulovlar tomonidan chop etilgan.

Ad.: *Шарафиддин Рокимий. Тарихи томм. – T., 1998.*

E.O.

TARIQAT (ar. – yo‘l, usul,) – tasavvufga xos tushuncha. Tasavvufda shariatdan keyin keladigan ma’naviy bosqich. Tariqat – arabcha “yo‘l” degan ma’noni bildirib, so‘fiylik adabiyotida murshid (pir) vositasida “Allohga yaqinlashmoq, Uning roziligi va ko‘rsatmasi bilan bosib o‘tish kerak bo‘lgan ma’naviy-ruhoniy yo‘ldir”. Ushbu yo‘ldan yurgan kishini murid, solik, darvesh nomlari bilan ataydilar. Demak, murid bu yo‘ldan yurish davomida bir qator ma’naviy maqom va manzillarni egallashi lozim bo‘ladi.

N. asarlarida T. b-n bog‘liq juda ko‘p nazariy ko‘rsatmalar bor. Aynan “L.T.”da qushlar misolida solikning chidam va sabot b-n egallab borishi lozim bo‘lgan ma’naviy yetti “vodiy”ni va undagi talablarni bayon qilib beradi. Ya’ni asarda muridning riyozat, “hol” va “maqom”larni zabt qilishdagi sa’y-harakati izchil va tartib b-n yoritilgan.

N. “N.M.”ning muqaddimasida T. ahliga xos bo‘lgan fe’l va amallarni keltirib o‘tadi. Jumladan, shariat rioyasi, T. odobi, hilm, burdborlig‘, rizo, sabr, sidq, karomot kabi mavzularni tilga olib o‘tadi. Shuningdek, T. yo‘lini tanlagan solik yomon fe’l va odatlarni tark etib, yaxshi xulqlarni egallashi, ibodat, riyozatlarni chiroyli, ixlos bilan bajarishi, serhimmat va saxovatli bo‘lishi, riyokorlikdan, munofiqlikdan yiroq bo‘lishi, katta-yu kichikka birday iltifotli, hatto o‘z farzandlari biror ayb ish qilib qo‘ysa ham, yumshoqlik bilan nasihat qiladigan jo‘mard kishi bo‘lishi va hok. talab etiladi. Xususan, tariqat odobi: “Ul adabdurki, yaxshi-yu yomong‘a va ulug‘-u kichikka bajo keltirurlar. Andoqki, borcha xaloyiqdin o‘zlarin kichik va kamroq tutorlar va barchag‘a xizmat huzurida bo‘lurlar. Hattoki o‘z farzandlarig‘a va xodim-u mamluklarig‘aki, har necha alardin beqoidalig‘ ko‘rsalar, xushunat birla alarg‘a so‘z demaslar, balki nasihatni yumshog‘ va chuchuk til bila qilurlar, hattoki o‘g‘rig‘acha”.

N. bir qit’asida “o‘zlikdan qutulish” va “tarki anoniyat” (takabburlik, manmanlikdan kechish) ning chorasi sifatida T.ning uch shartini ko‘rsatadi.

Pir-u iste'dod-u tavfiq o'lmasa, bo'lmas bu ish,
Kimdururkim, bag'ri bu hasratdin
oning qon emas.

Demak, tasavvufda muvaffaqiyat qozonish, o'zlik yukidan xalos bo'lish uchun uch narsa lozim ekan: 1) Pir – ya'ni murshidi komil 2) iste'dod ya'ni muridning suluk yo'lida oqilona va qat'iyat bilan harakat qilishi. 3) Tavfiq. Allohning hidoyati, suluk yo'lida muvaffaqiyat ato etishi.

Yuqorida aytganimiz kabi N.ning asarlarida ham T.ning asosi va dastlabki bosqichi shariat ekanligi uqtirib o'tilgan:

Tariq joddayi shar' erur bu dayr ichra
Ki, anda kimki suluk etti – bo'ldi ahli tariq.

Baytdagi "tariq"dan maqsad, avvalo, bu joddayi shar' ya'ni shariat yo'li, shariat ahkomlari ekan. Kimki, shariat doirasida suluk etsagina u haqiqiy ma'noda ahli T.dir. So'radilar (hazrat Naqshbanddan) sizning tariqangizni qanday topish mumkin: Aytdilar: "Shariatni mahkam tutish va Rasulullоh sallallohu alayhi vasallam sunnatlariga to'liq amal qilish bilan".

N. "L.T."da Suluk (tariqatlar)ning ham rangbarangligini aytib, ularning ichida sofi ham quyqasi ham borligini ta'kidlaydi. Lekin"... bu sof tabiat egalari sirasiga payg'ambar shariati qonunqoidalariga tobe' bo'lganlar kiradi. N. asarlarida haqiqiy shayxlarni, T. pirlarini ta'rif-tavsif qilganidek, soxta shayxlarni ayovsiz tanqid qilgan.

N. "L.T." kitobida Payg'ambar (s.a.v.)ning me'roj voqeasini tasvirlar ekan, nabiy (s.a.v.) ning Alloh huzuriga chiqish voqealarini juda ehtiros va samimiyat bilan bayon qilib beradi. Hazrat Payg'ambar (s.a.v.)ning Alloh jamolini ko'rishlari va "yuz ming ehtirom" bilan Undan to'qson ming kalom eshitganlarini ta'kidlaydi:

Ham ko'rub jonon jamolin ko'z bila,
Vaslidin ham bahra topib so'z bila.

Aylabon idrok to'qson ming kalom,
Lek asnosida yuz ming ehtirom.

Osiy ummatning gunohin istabon,
Barcha ahvoli tabohin istabon.

Har ne istab Hayyi mutloqdin topib,
Haq tilab, haqdin tilab, Haqdin topib.

"Al-majozu qantarat ul-haqiqat" (Majoziy ishq haqiqiy ishqning ko'prigidir) hadisiga muvofiq T.da majoziy ishq vositasida haqiqiy ishq tomon boriladi. Bu haqda N. yozadi:

Majozdin manga maqsud erur haqiqiy ishq,
Nedinki, ahli haqiqatqa bu tariqat erur.

Xususan, N. "N.M." asarida tariqatning adablari, manbalari va mashoyixlarning hikmatli so'zlaridan ko'plab namunalar keltirib o'tadi. Mumshod Dinavariy (q.s.)ning so'zidurki: "Muridga lozim bo'lgan adablar: mashoyixlarni hurmat qilish, birodarlarga xizmat qilish, sabablardan qutulish va shariat odoblarini saqlash". Shayx ul-islom debdurki, adab uldurki, Haq subhonahu taolog'a ibodat qilurda suv va tufroq va nafs ruunatidin qo'pqaysen va demagaysenkim, men va kirdorim, degaysenki, ul va tavfiq-u inoyati". N. mazkur tazkira asarida Shayx Abu Abdulloh Solimiyning "...oti Ahmad bin Olim Basriy" bo'lib, "Sahl bin Abdulloh Tustariyning shogirdi" ekani va"...o'ttiz yil yo oltmish yil oning bila bo'lur ekondur va tariqat andin kasb qilibdur". Shayx Abu Tolib Muhammad bin Ali bin Atiya Horisiy Makkiy haqida xabar beradiki: "... ul "Qut ul-qulub" kitobining sohibidurki, tariqat asrorining majmayidur".

N. asarlarida T. sinonimi sifatida suluk so'zini ham ishlatiladi. U "L.T."da T. ahlining takabbur bo'lmasligi, o'zlikdan kechishi, bor va yo'g'ini to'kib solishi kerakligini uqdiradi:

Ulki derlarkim, suluk ahlig'a yo'l
Bir qadamdur yaxshi voqif bo'lsa ul.

Ul qadam budurki, yo'q-u borini –
O'rtagaykim, qo'ymag'ay osorini.

Bu qadam qo‘yg‘och, yetar matlubg‘a,
Hajr borib, qovushur mahbubg‘a.

N.asarlaridagi T. so‘zining lug‘aviy va majoziy ma’nolarini to‘g‘ri ilg‘ash uning tasavvuf haqidagi qarashlarini tushunishda yaqindan yordam beradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Хожа Аҳмад Яссавий. Девони ҳикмат. – Т., – 2004; Абу Жўллоб Ҳужвирий. Кашф ул-маҳжуб. – Истанбул, 1996.*

S.R.

TARK – voz kechish, aloqani uzish, bog‘liqlikdan xalos bo‘lish. T. ahliga toriq, toriqi dunyo deyilgan. Tasavvuf ta’limotida tark muhim ahamiyatga ega bo‘lgani u-n so‘fiy va mutasavvif ijodkorlar tark tushunchasidan ancha keng bahs yuritishgan. T.ning dastlabki shakli zuhd jarayoni bilan boshlangan va hayotning o‘tkinchi zavqi, lazzat-u manfaatlaridan kechishga undovchi tarki dunyodir. N. zohidlarning oxirat u-n bu dunyo zavqi va lazzatlaridan yiroqlashish g‘oyasini, albatta, qo‘llab-quvvatlamagan. Lekin ayni paytda tarki dunyo tuyg‘usining shaxs erki va kamoloti u-n zarurligini ham u inkor qilmagan:

Ey Navoiy, tarki dunyo ayla izzat istasang
Kim, mazallat keldi sa’y aning
tamannosi uchun.

“N.J.”dagi ruboiylardan birida esa:

Dunyo sori hirs har yamondin ortuq,
Tark etmak ani kavn-u makondin ortuq,

deyiladi. Zero, shoirning xulosasi bo‘yicha:

Kom vaqti tarki dunyo aylagan
topmish hayot,
Yo‘qsa yetkanda ajal xudkom-u
nokom aylamish.

T.ning yana bir turi tarki uqbo bo‘lib, unda orif ilohiy jamol tomoshasi uchun jannat va undagi ne’matlardan umidini uzgan:

Navoiy, istasang uqbo murodin,
nomurod o‘lg‘il
Agar dunyo murodi yo‘qtur,
o‘zni nomurod etma.

Shoir “G‘.S.” devonidagi g‘azallaridan birida:

Navoiy aylasa ishqingda kufr-u din tarki,
Qachon bu voqia shavq ahlidin muhol o‘lg‘ay,

deganda ham tarki uqboni nazarda tutgan.

T.ning uchinchi shakli tarki hasti deb atalgan. Bu tarkda solik o‘z borlig‘idan ham kechib, Haqqa fone bo‘lish maqomiga yuksalgan. Ushbu holatni N. maqsadi kull – ulug‘ maqsadga yetishish deb ta’riflagan:

Foniyi mutlaq o‘lmayin solik,
Anga yo‘qtur umidi maqsadi kull.

Qaro tufroqg‘a singmagan qatra,
Andin imkoni yo‘q ochilmoq gul.

Shuning u-n o‘zlikni idbor – baxtsizlik yoxud omadsizlik holida emas, balki iqbol holida tark qilish lozim.

T.ni tark deyilgan so‘nggi tark Haq yo‘lchilarining aqli va zehnida umuman tark degan bir gap qolmasligini aks ettirgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Назм ул-жавоҳир. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

I.H.

TARKIBBAND (ar. − tuzilish, band) – mumtoz adabiyotdagi lirik janrlaridan biri. T. biron kishi vafoti munosabati bilan yoziladigan marsiya-

ning bir turi bo‘lib, mazmunan Yevropa xalqlari adabiyotidagi elegiyaga yaqin. Shaklan T.ga o‘xshash, bir necha bandlardan, har bir band esa bir necha baytdan iborat bo‘ladi. Har banddagi baytlar o‘zaro g‘azal singari (aa – ba – va ....) qofiyalanadi. Har bir band oxirida o‘zaro qofiyalangan, mazmuni bir-biriga o‘xshamaydigan bayt keladi. Bu bayt har banddagi fikrlarga o‘zicha yakun yasaydi. T. boshqa she’r turlari kabi aruz vaznining turli vaznlarida yozilgan bo‘lishi mumkin. T. forstojik adabiyotida X–XI, o‘zbek adabiyotida XV asrdan yozila boshlangan. Hofiz Xorazmiy, N., Nodira va boshqalar T. ijod qilishgan.

N.ning bizgacha o‘zbek tilida Sayyid Hasan Ardasher, shahzoda Shoh G‘arib Mirzo hamda fors tilida Abdurahmon Jomiy vafotlari munosabati b-n yozilgan uch T.i yetib kelgan. Sayyid Hasan nomi bilan bog‘liq T. taxminan 1488–1489-yy.da yozilgan. Sayyid Hasan vafoti munosabati bilan qattiq qayg‘uga botgan shoir unga bo‘lgan o‘z samimiy tuyg‘ularini shu T. orqali bayon etgan. T. aruzning ramali musammani mahbuni maqtu’ (Foilotun failotun failotun fa’lun) vaznida yozilgan va “N.Sh.” devoniga joylashtirilgan. Mazkur T.da N. Sayyid Hasanni o‘z davrining o‘qimishli, insofli, sadoqatli, “bahri urfon duri” sifatida vasf etadi. Xususan, faqr ahli uning vafotiga qattiq motam tutgan:

Garchi ul bordi baqo mulkiga, lekin yuz alam
So‘gidin charxi fano ahlig‘a izhor etti.

Halqayi zikr dema faqr eliga shom-u sahar
Ki, azosida bu el navha padidor etti.

Bu el orasida N. ham bor edi. (“Meni savdozadag‘a o‘zgacha motam tushti”). N. bir umr Sayyid Hasan bilan do‘st bo‘lib, uning o‘limi vaqtida yonida bo‘la olmaganidan qattiq iztirobga tushadi. Shoir ustozi vafotiga yoqa yirtib yig‘lar ekan, men shunday vaqtda sening boshingda o‘ltira olmadim, sharbat tutolmadim, shirin so‘zlar aytolmadim, “gah boshingni tuzatib, gah oyog‘ingni yopib” mehribonlik qilolmadim, tobutingni ko‘tarib, navhalar torta olmadim, deydi. T. baland-parvoz uslubda, yaltiroq tashbeh va istioralar bilan emas, oddiy samimiy so‘zlashuv tilida yozilgan bo‘lib, N. shaxsiyatidagi insoniylik tuyg‘ularining chuqurligidan dalolat beradi.

N.ning Jomiy vafotiga bag‘ishlangan T.i “Xam.M.”ning oxirida keltirilgan bo‘lib, taxminan 1492–1493-yy.da yozilgan. Jomiy 40 yildan ortiq Xuroson madaniy muhitida katta rol o‘ynagan, ustozlik qilgan, qiyin masalalarda rahnamolik ko‘rsatgan. N. kabi davlat arboblarining maslahatchisi bo‘lgan edi. N. va Jomiy do‘stligi, ayniqsa, adabiyot sohasida olamshumul yutuqlarga olib keldi. Ushbu T.da Jomiy vafoti munosabati bilan Xuroson mamlakatidagi barcha ilg‘or fikrli ziyolilar boshiga tushgan musibat g‘oyat ta’sirli aks ettirilgan. Jomiyning jasadini tuproqqa qo‘yishni N. “Olamero ba so‘n olami digar burdan” (“Bir olamni boshqa bir olamga eltmoqlik”) deb ta’riflaydi. Mazkur T. fors-tojik adabiyotida ushbu she’r turining eng go‘zal namunasi hisoblanadi.

“B.V.” devonining 1500-y.da ko‘chirilgan qo‘lyozma nusxalaridan biri orqali yetib kelgan o‘zbekcha T.lardan biri Sulton Husayn Boyqaroning o‘g‘illaridan biri Shoh G‘arib Mirzo vafotiga bag‘ishlangan (qarang: **“Navoiyning Shoh G‘arib Mirzoga marsiyasi”**)

N. T.lari b-n bu janrning taraqqiyotiga samarali hissa qo‘shgan. Zamonaviy shoirlardan V.Sa’dulla, Chustiylar T. yozganlar. Chustiy T.ining har bandi 5 baytdan tarkib topib, har band oxirida alohida bayt takrorlanib keladi.

Ad.: *Адабий турлар ва жанрлар. 2-жилд. – Т., 1992; Ўзбек адабиёти тарихи. 5 жилдлик, 2-жилд. – Т., 1977; Очилов Э. Таркиббанд // ЎзМЭ. 8-жилд. – Т., 2004; Казакбаева Д. Ўзбек мумтоз адабиётида таржеъбанд ва таркиббанд жанрларининг такомили: филол. фан.б.фалс.док..дисс. – Т., 2021.*

Ab.H., M.A.

TARNOB – Joy nomi. Xurosonda, Hirotdan bir necha farsax uzoqlikda joylashgan. Bu yer-

dagi dasht ham T. dashti deb atalgan. Poytaxtga yaqin bo‘lganligi uchun strategik jihatdan muhim hisoblangan. Shu sababli bo‘lsa kerak, 1448-y.da Xurosonga yurish qilgan Ulug‘bek mirzo qo‘shini b-n ushbu mavzeda to‘xtagan va shu yerda jang qilishni ma’qul ko‘rgan. Ulug‘bekning g‘alabasi b-n tugagan ushbu urush Tarnob jangi deb tarixda qolgan.

T. N. b-n bog‘liq manbalarda ham tilga olingan. Ulardan N.ning mazkur mavzega e’tibor b-n qaragani ma’lum bo‘ladi. T.ning strategik ahamiyatini hisobga olgan bo‘lsa kerak, ulug‘ shoir va davlat arbobi bu yerda ko‘prik va robot qurdirgan. Shuningdek, uning T.da hammom qurgani haqida ham ma’lumot bor. Mashhur tarixchi Xondamir “Makorim ul-axloq”da N. tomonidan amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlarini qayd qilar ekan, T. ko‘prigi, hammom va rabotini tilga oladi.

Ad.: *Абдураззоқ Самарқандий. Матлаъ ас-саъдайн ва мажмаъ ал-баҳрайн. – T., 1969; Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – T., 1967.*

Q.E.

TARONA (f. – kuy, qo‘shiq, ashula) – Sharq she’riyatining keng tarqalgan ruboiy turlaridan biri. Hazaj bahrining axram va axrab shajaralarida yozilib, to‘rt misradan tashkil topgan. Unda asosan axloqiy-falsafiy, siyosiy va ishqiy mavzular kuylangan. Ruboiydagi misralar o‘zaro qofiyalanishiga ko‘ra: xossayi ruboiy (a-a-b-a) va taronayi ruboiy (a-a-a-a) kabi ikki turga bo‘lingan. Qabul Muhammad “Haft qulzum” asarida shunday yozadi: *“Bilgilki, ruboiy lug‘atda ikki baytli she’r deganidir. Vazn va qofiyada ikkala misrasi ham muvofiq kelgan she’r ruboiy deyiladi. Uning ko‘pincha birinchi, ikkinchi va to‘rtinchi misralari qofiyalanadi. Mabodo uchinchi misrasi ham qofiyalanib kelsa, unda ruboyi tarona, deb yuritiladi”.* Zahiriddin Muhammad Bobur ruboiyning dubaytiy hamda tarona deyilishini, hazaj bahrining 24 vaznida bitilganini yozadi. Bu xususda N. *“Ruboiy vaznikim, ani “dubaytiy” va “tarona” ham derlar, hazaj bahriniig “axram” va “axrab”idin istixroj qilibdurlar va ul vaznedur asru xush oyanda va nazmedur bag‘oyat raboyanda”,* – deydi. T. “ruboiyi musarra’” ham deb atalgan. N. uni “ruboiya” deb nomlagan.

Turkiy adabiyotda T. ya’ni ruboiylarning go‘zal va betakror namunalari N. qalamiga mansubdirki, bu ijodkordan yuksak did va mahorat, mehnat talab qilgan. Xususan, shoirning debocha va nasriy asarlaridan tashqari (turkiy tilda 380 ga yaqin, forsiyda 73 ta) “N.J.” asarida 260, “G‘.S.”da 116 ta jami 550 dan ortiq ruboiysi T. usulida qofiyalangan. Xondamir N. ijodidagi ruboiyning bu turini ta’riflab: “Har to‘rt misrasi qofiyalangan va radiflangan ruboiyga nima yetsin”, – deya baholaydi. N.ning quyidagi ruboiysi T.ning go‘zal namunalaridan biridir.

Yo Rab, ul javohirlarniki, manzum ettim,
Chekkanim anga har nuktaki, ma’lum ettim,
Har nuktaga bir tarona marqum ettim,
Ko‘p gavhar aning zimnida maktum ettim.

T. Markaziy Osiyo va unga yondosh o‘lkalarda musiqa san’ati janrlaridan birining nomi bo‘lgan, degan qarash ham mavjud.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – T., 2011; Алишер Навоий. Назм ул-жавоҳир. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – T., 2011; Р.Орзибеков. лирикада кичик жанрлар. – T., 1976; Ё. Исҳоқов. Сўз санъати сўзлиги. – T., 2014; Ғиёсиддин Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – T., 2015; Ҳаққулов И. Рубоий ҳақида баъзи мулоҳазалар. Ўзбек тили ва адабиёти журнали, 1974. 6-сон.*

E.Q.

TARSO (f.) – 1. Nasroniy, masihiy. 2. So‘fiylar nazdida nafsi ammorani mahv aylab, nafsi hamidaga erishgan orif inson. Tabiatidagi qusurlardan qutulib, kamolotga yetishgan komil murshid. Tasavvufda dunyodan voz kechib, ilohiy ishqqa g‘arq bo‘lgan oshiq ham ko‘zda tutiladi. Nozik ma’nolar va haqiqatlarga ham ishora qilinadi.

Tajridga va taqlid tuzog‘idan xalos bo‘lishga ham T deyilgan. Zero, tajrid va tafrid, ya’ni dunyodan uzilish va odamlardan chetlashish nasroniylik dinining payg‘ambari Iso (a.s.) tabiatida g‘olib edi. Ma’lum bo‘ladiki, tarso deganda o‘zini dunyo va odamlar bilan bog‘lab turgan barcha rishtalarni uzgan Iso Masih kabi tajrid martabasini topgan kishi tushuniladi.

N. ijodida T so‘zi o‘zining rang-barang ma’nolarida “ko‘b va xo‘b” qo‘llanadi. M-n:

Dayr aro o‘zni, Navoiy, xush tut,
Chun kelibtur sanga ul tarso xush.

Qasr uza bu shakl ila tarso qizi,
Bal quyosh ayvonida Iso qizi.

Ad.: *Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва таъбироти ирфони. – Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.); Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005; Фарҳанги забони тожики. Жилд 2. – М., 1969; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. – Т., 1984; Абдуқодиров А. Тасаввуф истилоҳларининг қисқача изоҳли луғати. 1-китоб. – Хўжанд, 1997.*

E.O.

TARTIB (ar. − intizom, tashkil etish) − tasvir yaxlitligini ta’minlash maqsadida voqea holatini tadrijiy takomilida, uzviy birin-ketinligida ifodalashga asoslangan badiiy san’at. Bunda fikr va tashbeh bir silsilani tashkil etib, she’rga alohida ravonlik, ta’sirchanlik va jarangdorlik bag‘ishlaydi. M-n:

Erur maqsad − yiroq, vodiy − uzun,
tun − tiyra, yo‘l − bo‘rtoq,
Bu yo‘lda salb etib o‘zluk yukin, o‘zni sabukbor et.

Bayt tasavvufiy mazmunda bo‘lib, tariqat yo‘liga kirgan solik uchun maqsadning yiroqligi, u kirgan vodiyning bepoyonligi, tunning zulmati-yu yo‘lning balchiqligi haqida ma’lumot berilib, bu yo‘lni bosib o‘tish uchun o‘zlik yukidan qutulib, o‘zini yengillatishi zarurligi aytilmoqda.

Quyidagi baytda esa mahbuba ishqida aqlidan ayrilib, hushi ketib, ko‘ngli kuyib, joni chiqib, bir yo‘la hammasidan qutulib, yengillashgani haqida so‘z boradi:

Aql itti, hush ketti, ko‘ngul kuydi, chiqti jon,
Shukr et, Navoiyoki, sabukbormen yana.

Yoki:

Yasarmen yuz maqolat, vah,
bo‘lur ko‘rgach ani nogah,
Ko‘zum hayron, tanim larzon,
esim vola, tilim alkan.

Quyidagi baytda esa hikmat xazinaboni labing yoquti miqdorini o‘lchash u-n gul bargini tarozi, jon rishtasini ip, la’lni tosh etdi, deydiki, bunda ham sanoq tartibini ko‘ramiz:

Tarozu bargi gul, ip rishtayi jon, tosh la’l etti,
Chekarda xozini hikmat labing yoquti miqdorin.

Ad.: *Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Т., 2001.*

E.O.

TARSE’ (ar. − gavharni ipga tizish) − fikr va ifodaning o‘zaro muvozanat hosil qilishi natijasida tasvirning musiqiyligi va ta’sirchanligining ortishiga asoslangan lafziy san’at. Bunda baytning birinchi misrasidagi barcha so‘zlar ikkinchi misradagi so‘zlar b-n ohangdosh, vazndosh va qofiyadosh bo‘lib keladi. M-n:

Ham demog‘ida yo‘q e’tibore kishiga,
Ham qilmog‘ida yo‘q ixtiyore kishiga.
Ne kun kelg‘ayki, kelgay nozaninim,
Ne xush bo‘lg‘ayki, bo‘lg‘ay hamnishinim.

Bu T.ning mukammal shakli hisoblanadi. Agarda qofiyadosh bo‘lmagan so‘zlar aralashib

qolsa, u nuqsonli T. deyiladi. M-n, N. san'atkor shoir Salmon Sovajiyning mashhur masnu' qasidasi matla'sini ayni jihatdan tanqid qiladi.

Safoyi safvati ro'yat birext obi bahor,
Havoyi jannati ko'yat babext mushki tator.

Tarj.: Pokiza yuzingning sofligi bahor suvini to'kdi. Ko'ying jannatining havosi muattar hid taratdi.

Bu yerda *obi − mushki* so'zlari o'zaro qofiyadosh ham, ohangdosh ham emas.

Shundan keyin o'zining buyuk salafining tatabbu'sida aytgan mukammal T. baytini keltiradi:

Chunon vazid ba bo'ston nasimi fasli bahor,
K-az on rasid ba yoron shamimi vasli nigor.

Tarj.: Bahor faslining nasimi bo'ston uzra shunday esdiki, undan oshiq ahliga ma'shuq vaslining xush isi yetishdi.

Atoulloh Husayniy ham "Badoye us-sanoye" asarida ushbu baytni N.ning go'zal va benazir san'atkorligi namunasi sifatida keltiradi.

Bunga qo'shimcha qilib yana forsiyda bitgan bir ruboiysini keltirar ekan, Xalil ibn Ahmad ruboiy qoidasini joriy qilgandan buyon birov bu usulda ruboiy aytgani ma'lum emas, deydi:

Ey ro'yi tu kavkabi jahonoroye,
V-ey bo'yi tu ashhabi ravonosoye,

Be mo'yi tu, yo Rab, chunon farsoye,
Geso'yi tu chun shabi fig'onafzoye.

Tarj.: Ey sening yuzing jahonni bezovchi yulduzga o'xshaydi. Va, ey, sening bo'ying jonga rohat bag'ishlovchi xush bo'ydir. Xudo haqqi, sening sochingsiz menda haddan ziyod parishonlik yuz berdi. Soching qoralikda (oshiqlarning) oh-u fig'oniga to'la tunga o'xshab ketadi.

N. o'zbek tilida ham faqat qofiya va radifdan iborat bir ruboiy yaratganki, u ham mazkur san'atning betakror namunasidir:

Jondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz,
Sondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz.
Har neniki sevmak ondin ortuq bo'lmas,
Ondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz.

She'rga alohida jarangdorlik va musiqiylik bag'ishlashi jihatidan T. san'ati turli janrdagi asarlarda mahorat b-n qo'llangan. U bayt misralaridagi barcha so'zlarning o'zaro qofiyadosh bo'lganini taqozo qilganidan g'azal va qasidaning faqat matla'sida qo'llangan. Lekin qofiya tufayli ba'zan vaznda ixtilof bo'lish hollari ham uchraydiki, Rashididdin Vatvot va Salmon Sovajiylarning masnu' qasidalari buning yorqin namunalaridir.

N. barcha janrdagi she'rlarida, "X." dostonlarida ham T. san'atidan mahorat bilan foydalangan. M-n, quyidagi mashhur fardi ham T.ning mukammal ko'rinishiga misol bo'la oladi:

Muruvvat barcha bermakdur, yemak yo'q,
Futuvvat barcha qilmakdur, demak yo'q.

Ka'ba ziyoratiga borgan Majnunning Alloh taolodan ko'nglidagi Layliga bo'lgan ishqini yanada ziyoda etishini tilab qilgan munojotidagi qator baytlar ham T. san'atining yorqin namunalaridir:

Ko'nglumga fazo harimi ishq et,
Jonimg'a g'izo nasimi ishq et!

Ishq isidin et damimni mushkin,
Ishq o'tidin et yuzumni rangin...

Layli ishqin tanimda jon qil,
Layli shavqin ragimda qon qil.

Dardini najotim et, Ilohi,
Yodini hayotim et, Ilohi!

"L.T." dostonida ham T. san'atidan mahorat b-n foydalanadi:

Ham chaman ahlig‘a sen mahbubsen,
Ham daman xaylig‘a sen marg‘ubsen...

Ne saodatdin yiroq tushkonlarin,
Ne hidoyatdin qiroq tushkonlarin...

Suratim gulshang‘a oroyishdurur,
Hay’atim ko‘rgang‘a osoyishdurur.

Albatta, bu baytlarning ayrimlari mukammal T. bo‘lmay noqisdir.

T. quruq so‘zbozlik bo‘lmay, balki muhim tasviriy vositalardan bo‘lib, shoirlar o‘z fikrlarini jarangdor va ta’sirchan ifodalash maqsadida unga murojaat qiladilar. Ayni paytda bu san’at badiiy mahorat namoyishi hamdir.

Ad.: *Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадоеъ ус-саноеъ (А.Рустамов тарж.). – Т., 1981; Зеҳний Т. Санъати сухан. – Душанбе, 1967; Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Л., 1972; Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т., 2006; Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2010; Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Т., 1979; Шамси Қайси Розий. Ал-мўъжам. – Душанбе, 1991.*

E.O.

TARXON – Turk-mo‘g‘ul davlatchiligida mavjud bo‘lgan unvon. Turk va mo‘g‘ul hukmdorlari o‘zlariga sodiq xizmat ko‘rsatgan kishilarga T. unvonini berganlar. Tarixiy manbalarda zikr etilishicha, birinchi bo‘lib, mazkur unvonga Bodoy va Qishliq degan ikki aka-uka sazovor bo‘lgan. Ular O‘ngxonning Chingizxonga hujum qilmoqchi ekanini eshitib qolib, bu haqda Chingizxonga xabar berishgan.

T.larga katta imtiyozlar berilgan. Ular soliq to‘lashdan ozod qilingan. Agar T.lar biror xatoga yo‘l qo‘ysa ham, to‘qqiz martagacha afv etilgan. Bundan tashqari, ularga istagan paytida xon huzuriga kirish va turli masalalar b-n murojaat qilish huquqi berilgan. Bu imtiyozlardan T.larning avlodlari to‘qqizinchi bo‘g‘ingacha foydalanganlar.

T.lar temuriylar davrida ham katta mavqega ega edi. Movarounnahr T.lari o‘zlarini Qishliq T. naslidan deb hisoblaganlar. Temuriylar b-n ular o‘rtasida qarindoshchilik munosabatlari yuzaga kelgan. Sohibqironning to‘rtinchi o‘g‘li Shohrux mirzo Salohiddin T.ning qizi Gavharshodbegimga uylangan edi. Sulton Abusaidning xotinlari ichida eng hurmatlisi deb hisoblangan katta xotini O‘rda Bug‘a T.ning qizi bo‘lgan.

N. Samarqandga kelgan paytda T. beklari, xususan, Darvesh Muhammad T. Movarounnahrda katta nufuz va e’tiborga molik edi. Lekin N. ular b-n juda yaqin munosabatlarga kirishmagan, uning Samarqanddagi asosiy homiysi va do‘sti Ahmad Xojibek bo‘lib, u T.lardan emas edi. Keyinchalik Ahmad Xojibek T.lar tomonidan o‘ldirilgan.

T. so‘zi N. lirikasida ham uchraydi:

Ey Navoiy, naylay el tarxon bila barlosini
Kim, berur ko‘nglumga xolo molish
ul sho‘xi malash.

Yoki:

Ey Navoiy, piri soqiyvashqa andoq men xarob,
Kim unutmishmen jahon tarxon ila barlosidin.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011; Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи. – Т., 1994; Муҳаммад Ҳайдар Мирзо. Тарихи Рашидий. – Т., 2008.*

E.O., M.A.

TARH (ar. – reja, bichim, loyiha) – Bino va quriladigan imoratlarning xomaki nusxasi. Turli xil me’morchilik inshootlarini tiklashdan oldin chizmasi tayyorlangan va shu asosda qurilish amalga oshirilgan. N. bir qancha binolarni qayta ta’mirlagan, qator masjid, madrasa, kutubxona, xonaqoh, karvonsaroy, hammom, rabot, hovuz va ko‘priklar qurdirgan. Mazkur binolar tarhini ko‘pincha N.ning o‘zi taklif etgan.

Binoye tarh qilmoqkim hamisha,
El etgay shah duosin anda pesha.

Bu imoratlarning peshtoq va devorlariga mashhur Mirak Naqqosh va u boshchiligidagi bir qancha hunarmandlar, koshintarosh va sangtarosh ustalarlar betakror naqshlar ishlagan. Zamonasining mashhur me'mor-u muhandislari, binokor va naqqoshlari b-n maslahatlashib, qurilajak inshootning joylashish o'rni, qulayligi, chidamliligi, xushhavoligi, mahobati va ko'rkam bo'lishini inobatga olgan. Asarlarida bu haqida ko'p to'xtalgan:

Ki chun bu uyda qilg'ung naqshi debo,
Kerak uy tarhi dog'i bo'lsa zebo.

Muhandiskim bu qasr obod qildi,
Bu yanglig' tarhini bunyod qildi.

Qilib ayvonida yuz tarh tahrir.
Mavoze' tarh qildi bori tasvir.

N. "T.M.A."da Shopur Binni Ardasherni oqil va odil podshoh bo'lganini ta'kidlar ekan, bunyodkorlik ishlariga ham alohida diqqat qaratganini yozadi: "*... Ammo Shopur ani yangi boshtin shatranj bisoti vaz'i bila obodon qildi. Va ayturlarkim, akosira bu ixtiro'ni qilib erdilarkim, shahrlar bino qilsalar, jonivorlar shakli bila tarh qilurlar erdi*".

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Вақфия. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

E.Q.

TASAVVUF VA NAVOIY – tasavvuf islom dini zaminida vujudga kelgan, ma'naviy tajriba orqali erishiladigan hol ilmi, ruh va ko'ngil ma'rifatidir. Tasavvufda go'zallik va ishq mushohadasi birinchi o'rinda turadi.

"Ahli tasavvufning ilmi, – deydi Shahobiddin Suhravardiy, – vijdonga tayangan, irfon va ma'rifat mohiyatini ifodalaydigan ilmdir. Bu ilm ma'noni pardozlovchi chiroyli so'zlar bilan anglatiladigan bir holat emas, balki sog'lom bir holdan yuzaga chiqadigan ma'naviy-ruhiy zavqdir. Chunki tasavvuf ilmi sof ko'ngillarga, ixlosli-e'tiqodli qalblarga beriladigan Haq hadyasidir".

Bu ilmning ichiga kirib borish "nafsni quvnatmaydi, unga hech shodlik ham bag'ishlamaydi". Chunki tasavvufda barcha muvaffaqiyat va natijalarning poydevori nafsni tanish, uni tarbiyalash hisoblanadi.

Har bir mazhab, diniy ta'limot yoki tariqat, eng avvalo, insonning ruhi, qalbi va vijdoniga hokim bo'lishni ko'zlaydi. Ammo ularning orasida tom ma'nosi ila ruhga kuch-quvvat, zavq-shavq, vijdonga buyuk osudalik va ichki g'ayrat bag'ishlaydiganlari juda kamdir. Bu jihatdan tasavvuf faqat Sharqda emas, G'arbda ham alohida bir qiziqish uyg'otgan.

Tasavvufning g'oyasi, nafs tarbiyasi va tazkiyasiga, go'zal axloq, ya'ni "axloqi Muhammadiya"ga erishmoqdir. Jo'n, sayoz gaplarni yurakdan supurib tashlash, Ruhni nafsga tobelikdan qutqazib, erkinlikka yuksaltirish har bir solik yo tolibning burchi va asosiy vazifalaridan hisoblangan. N. tasavvufning "avvali ilm, o'rtasi amal, oxiri ilohiy ishq" ekanligini mukammal bilgan va tasavvufning nazariy haqiqatlari b-n amaliyoti – tariqat tajribalarini mohirlik b-n muvofiqlashtirgan. N. shoirligida mutasavviflikdan, mutasavvifligida shoirligidan ilhomlanib ijod qilgan.

Tasavvufiy ma'no va tushunchalarning she'r b-n ifodalanish davri hijriy V – melodiy IX asrdan boshlangan. Ancha keyinroq esa har turli san'at usulidan uzoq tasavvuf she'ri ramz, majoz, tashbih, istiora singari badiiy usul va vositalar b-n bezatilgan san'at namunalariga aylana boshlagan. Ayniqsa, forsiy tilda qalam tebratgan shoirlarning ko'pi she'rlarida tasavvufiy ramz, timsol va istilohlarni keng qo'llaganlar.

So'fiylarning she'r va adabiyotga tayanishlari tabiiy edi. Chunki she'r qalb va tuyg'u, ruh

va holat ishi bo‘lganidan tasavvuf ham nigohini ko‘ngil va hol dunyosiga qaratgandi. Tasavvuf uchun she’r bir talqin va targ‘ib vositasi edi. She’riyat esa tasavvufdan o‘zining ma’no, mohiyat, tushuncha dunyosini boyitish u-n foydalanardi. Shu boisdan ham tasavvufdagi adabiyot b-n adabiyotdagi tasavvuf orasida farqlanish, hatto ayrim tafovutlar ham ko‘zga tashlanardi. N. tasavvufni adabiyot, xususan she’riyat xizmatiga safarbar qilib, turkiy tasavvuf she’riyatini yangi bosqichga ko‘targan san’atkordir.

Tasavvuf tarixida irshod usullariga ko‘ra tariqatlar uchga ajratilgan: 1. Tariqi axyor. 2. Tariqi abror. 3. Tariqi shuttor.

Tariqi axyor – amal va ibodatga qat’iy rioya qilib, yaxshi ishlar, ezgu maqsadlarni ro‘yobga chiqarish b-n Haq diydoriga vosil bo‘lish umidi b-n yashaydiganlar yo‘lidir. Tariqi abror – riyozat va mujohada orqali nafsni yengib, Haq b-n ham, xalq b-n ham muomalada sidqdan chekinmaydiganlarga mansub yo‘l sanaladi. Tariqi shuttor – ishq, muhabbat va jazba ahlining yo‘lidir. Bunday tariqatlarga ruhoniy tariqatlar ham deyilgan. N. mansub naqshbandiylik ana shunday tariqatlarning eng mashhuri edi. Shuning u-n ham N. ijodiyotida muhabbat, ishq, ruhoniy holat tasvirlari asosiy yo‘nalishni tashkil etadi. N. hayot haqiqati va favqulodda murakkab insoniy muammolarni ishq yo‘li b-n hal qiladi, ishqqa suyanib, umuminsoniy xulosalarga keladi:

Qaysi ko‘ngulniki, makon etti ishq,
O‘tdin ani la’lg‘a kon etti ishq.

Bo‘lmasa ishq, ikki jahon bo‘lmasun,
Ikki jahon demaki jon bo‘lmasun.

Ishqsiz ul tanki, aning joni yo‘q,
Husnni netsun kishikim, oni yo‘q...

N. she’riyatining asosiy mazmun-mohiyati “H.A.” dostonidagi ushbu misralarda aksini topgan desa, xato bo‘lmaydi. Chunki shoirning lirik merosidagidek, dostonlarida ham yetakchi g‘oya, ruh va ko‘ngilni zavqlantiradigan hayotbaxsh kuch-quvvat bir qanoti majoziy, ikkinchi qanoti ilohiy bo‘lgan Ishqdir. N. ijodiyotida “majoziy ishq ishqi haqiqatning bir ko‘rinishi yoki haqiqiy ishq yo‘lidagi o‘ziga xos bosqich sifatida baholanadi”. N. qit’alaridan birida bu haqiqatga:

Gar Navoiy yig‘lasa, ishqing majoziydur dema,
Kim nazar pok aylagach, ayni haqiqatdur majoz,

deya aniqlik kiritgan.

Ayrim tadqiqotlarda N.ni faqat ilohiy ishqni kuylagan, ya’ni so‘fiy shoir siymosida ko‘rsatishga urinishlar ham bo‘lgan. Holbuki, bu butunlay g‘ayriilmiy nuqtayi nazardir.

Chin so‘fiy singari so‘fiy ijodkor ham turmush va voqelik haqiqatlari b-n kelisholmaydi, hayotni idealiga muvofiqlashtirib, hamma narsaga, hamma kori holda Haq nigohi b-n qarashni istaydi. Bunga erishib bo‘lmasligiga ishonch hosil qilgach, dili vayron bo‘lib, g‘am chekadi, voqelikdan uzilgan xayollarga beriladi. N. esa “barchadin yaxshiroq hayot guli” deb bilgani, ezgulikning hayotbaxshligi, go‘zallikning doimo sevib-sevilishiga iymon keltirgani tufayli bevosita xalq, yurt, din va davlat manfaatlarini aks ettiradigan ma’no, haqiqat tasvirlaridan hech chekinmaydi. N. Hazrati Naqshband o‘rtaga tashlagan “Dil ba yor-u dast ba kor” – “Yurak yorda-yu, qo‘l mehnatda” talab va tajribasidan hech chekinmaydi.

“Alohida ta’kid ila shuni anglatishni istaymanki, – deydi Imom Rabboniy, – naqshbandiya tariqati buyuklarining himmat nazarlari ko‘p balanddir. Raqsi samodan boshqa bir nimani bilmaydigan soxta va riyokor so‘fiylarni ular bilan taqqoslash mutlaqo noto‘g‘ridir... Ushbu tariqat mashoyixlarining nazari qalb xastaliklariga shifo, iltifotlari esa ma’naviy ojizliklardan qutulishga vosita erur. Ularning solikka bir tavajjuhi (yuz qaratishi) yuz arbain (chilla o‘tirish)ga teng kelsa, birgina iltifotlari esa yillar mobaynidagi riyozat va mujohada (nafsga qarshi kurash)dan ziyoddir”.

Naqshbandiylik tariqi arboblarining fikr-qarashlari, ma'naviy ko'rsatma-yu axloqiy talablariga ijodiy yondashilib, amal qilinganligi bois ham N. she'riyatida ishq ma'rifatga, irfon esa haqiqatga keng yo'l ochib bergan edi.

Ma'lumki, Abduxoliq G'ijduvoniy o'rtaga qo'ygan va kalimoti qudsiya deyilgan sakkiz qoida Xojagon – naqshbandiya tariqatlarida sayri sulukning asosiy shartlari sifatida qabul qilingan. Ular quyidagilardan iborat: 1. Xush dar dam: olinadigan nafasning hech birida g'aflatda qolmaslik. 2. Nazar bar qadam: yurganda g'ofillikka sabab bo'ladigan har qanday narsani ko'rmaslik u-n o'z oyog'idan ko'z uzmaslik. 3. Safar dar vatan: bashariy sifatlardan ilohiy sifatlarga chorlovchi botiniy yo'lchilikka yo'nalish. 4. Xilvat dar anjumon: zohirda xalq b-n, botinda Haq b-n bo'lish. 5. Yod kard: til zikri b-n barobar qalbiy zikrni ham bajarish. 6. Boz gansht: zikr chog'ida kalimai tavhid ortidan "Allohim, maqsadim sensan, orzuyim sening rizongga erishmoqdir" jumlasini aytishdir. 7. Nigoh dosht: keraksiz tushuncha va "xovotiri naffs", "xavotiri shayton"dan qutulish. 8. Yod dosht: zikr sababi bo'lgan bedorlikni cho'zish, har lahza, har onda Haqdan ogoh bo'lish.

Bularga ilova tarzida yana uch qoida ilova qilingan: 9. Vuqufi zamoni: ichida bo'lingan holga ko'ra harakat qilish va hushyorlikdan chekinmaslik. 10. Vuqufi adadiy: zikrda son va sanoqqa rioyat etish. 11. Vuqufi qalbiy: zikrda qalbga yo'nalish yoki qaqlbning Allohdan g'ofil qolmasligi.

Bu shartlardan bir nechasini N. she'riy shakllarda talqin qilib bergan. Shulardan biri:

Qanoat tariqi kir, ey ko'ngul,
Ki, xatm o'lg'ay oyini izzat sanga,

bayti b-n boshlanadigan mashhur qit'adir.

Xullas, faqat tasavvuf emas, balki naqshbandiylikdagi axloqiy tushuncha, diniy-irfoniy ma'no, ma'naviy haqiqatlar N. ijodiyotining yuksalishiga alohida ta'sir o'tkazgan.

Tasavvuf va tasavvuf adabiyotidagi faqir, rind, solik, darvesh, g'arib kabi obrazlar to'g'risida N. yaratgan she'rlar jamlansa, o'ziga xos "faqirnoma", "rindnoma", "g'aribnoma"lar paydo bo'ladi. Tasavvufshunoslarning e'tirofi bo'yicha, tasavvuf tili – ramz va majoz tili bo'lganligi u-n undagi ifodalar "xayol va vijdonni harakatga keltirib, yuksak qalb bilan aloqaga kirishadi. Ular takrorlanganda esa avvalgiga nisbatan ham ta'siri ortib, ma'nolar ravshanlik kasb etadi". N. tasavvuf tiliga xos sirli, sehrli bu xususiyatni nihoyatda teran his qilgani tufayli ham tasavvufiy ramz, majoz, timsol va istilohlarni she'rda favqulodda mohirlik b-n qo'llagan.

Komil inson tushunchasi tasavvuf b-n N. she'riyatining bog'lanishini ta'minlaydigan mustahkam robitadir. Bunda mutafakkir shoirning Nafs, Ruh va Ko'ngilga qarashlari ko'proq tasavvufga tayanganini bilishda qiyinchilik sezilmaydi.

Ad.: *Қушайрий А. Рисолаи Қушайрий. – Теҳрон, 1388; Абулҳасан Ҳужвирий. Кашф ул маҳжуб. – Теҳрон, 2003; Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. – М., 1965; Зоҳидов В. Навоий ижодининг қалби. – Т., 1970; Исҳоқов Ё. Нақшбандийлик ва ўзбек адабиёти. – Т., 1995; Воҳидов Р. Навоий ва илоҳиёт. – Бухоро., 1994; Комилов Н. Тасаввуф ёки тавҳид асрори. 2-китоб. – Т., 1999; Олим С. Нақшбанд ва Навоий. – Т., 1996; Ҳаққул И. Тасаввуф ва шеърият. – Т., 1991; Ҳаққул И. Навоийга қайтиш. – Т., 2021.*

I.H.

"TASAVVUF RIZO AHLIDIN YAXSHI AXLOQ..." – N.ning "F.K." devoniga kiritilgan g'azali:

Birovga musallam tariqi tasavvuf
Ki, zotida mavjud emastur taxalluf.

Tasavvuf rizo ahlidin yaxshi axloq,
Erur istilohoti zeb-u takalluf.

Tasavvuf emas zuhd-u taqvo-yu toat,
Ki, anda riyo yo'l topar betavaqquf.

Erur mahz taqvo-yu lekin riyosiz
Ubudiyat sarf-u ayni talattuf.

Ne el qavl-u fe'lig'a andin taaddi,
Ne Haq amr-u nahyig'a andin tasarruf.

O'zin o'yla beixtiyor anglabonkim,
Ne qolib taraddud anga, ne taassuf.

Qilib Haq vujudida mahv o'z vujudin,
Navoiy, muni bil tariqi tasavvuf.

Musulmon olamida eng ko'p tilga olinib, eng ko'p bahs-u munozaralarga sabab bo'lgan va juda ko'p ta'riflar bitilgan kalimalardan biri tasavvufdir. Bu so'z Sharq chegarasini kesib, G'arbga ham o'tgan va G'arb olimlaridan biri so'fiy hamda mutasavviflarning tasavvufga bergan ta'riflarini bir joyga jamlab, ularning fikr va munosabatlari bir-biriga o'xshash kelmasligini ko'rib, hayron qolgan.

Tasavvufni anglashda ma'lum bir farqlar bo'lganidek, tasavvuf tajribasida ham ba'zi nomuvofiqliklar bor. Shu bois ham ayrim shoirlar o'zlari mansub yoki xayrixoh tariqat talablariga tayangan holda tasavvufga she'riy ta'riflar bitishgan. N.ning "F.K." devonidan o'rin olgan yuqoridagi g'azal ham xuddi shunday she'rlardan biri.

Akad. adib Oybekning ta'kidlashicha, N. davrida tasavvuf "yuksak aristokratiya muhitida g'oyat katta e'tibor qozongan. U vaqtning ko'p akobir va a'yonlari, shoirlar o'zlarini tasavvufga mansub deb bilganlar". Ayniqsa, erkin va mustaqil fikr sohiblarini tasavvuf yo'li o'ziga maftun etgan. Shunga qaramasdan, tasavvuf ommaviy bir yo'l bo'lmasdan, nafsni yengib, dunyoni tanib, ma'naviy yo'lchilikda oxirgi manzilgacha yetib bora oladigan xos oshiqlarning yashash tarzi, ma'rifat va haqiqat maydoni edi. Tasavvuf talqiniga maxsus she'r bag'ishlagan N. masalaning ana shu jihatlarini ham e'tiborga olgan edi. Buni g'azalning ilk baytidanoq payqash mumkin:

Birovga musallam tariqi tasavvuf
Ki, zotida mavjud emastur taxalluf.

Maz.: Kimgaki tasavvuf yo'li yoki maslagi musallam bo'lgan bo'lsa, uning shaxsida va suluk odobi bo'yicha harakat qilishida hech qanday ixtilof bo'lmasligi zarur.

Tasavvufni go'zal va komil axloq, deb bilish tariqat vakillari o'rtasida keng tarqalgan. Shayx Abul Hasan Nuriy, "tasavvuf – rusum ham emas, ulum tarzi ham emas, balki yaxshi axloqdur", – desa, Kattoniy "Tasavvuf – bu axloq demak. Axloqan kim sendan ilgarilasa, tasavvufda ham ilgarilagan bo'ladi", – deydi. Abu Usmon al-Mag'ribiyga ko'ra esa, "Yaxshi axloq Allohdan rozi bo'lmoqdur".

Tasavvuf rizo ahlidin yaxshi axloq,
Erur istilohoti zeb-u takalluf, –

deganda, yuqoridagi kabi fikr-qarashlarni N. go'yo umumlashtiradi va yaxshi axloq asosini Allohdan rizolik sifatida belgilaydi. Chunki rizo holini yashay olgan va rizo maqomiga yuksalgan kishi u-n zohiriy bir da'voning hech qanaqa qimmati qolmaydi. Navbatdagi baytda yanada muhim fikr ilgari surilgan:

Tasavvuf emas zuhd-u taqvo-yu toat,
Ki, anda riyo yo'l topar betavaqquf.

Aslini olganda, zuhd oxirat yo'lchilarining sharafli maqomlaridan hisoblanadi. Abdullo Ansoriy tasavvufga bag'ishlangan "Sad maydon" risolasida zuhdni uchga bo'ladi: avval dunyodan, so'ng ommadan, nihoyat o'zdan zuhd. Uningcha, dunyodan zuhdning nishonasi – o'limni xotirdan chiqarmaslik, qanoatli bo'lish, darveshlar suhbatidin bahramandlik.

O'zdan zuhd esa insonning o'z botinidagi yovuzlik, kuchsizlik va munofiqliklarni aniq bilishidir. "Zuhd-u taqvo-yu toat"ni tasavvufdan ajratganda, N. ilohiy go'zallikdan tug'ilgan samoviy hissiyotlarni, haqiqiy tasavvuf ahlida zohid va obidlardagi ichki turg'unlik, ma'naviy-ruhiy harakatsizlik begonaligini nazarda tutgan. Eng muhimi, taqvo-yu toat sohiblarida uchraydigan riyo yoki kibrning barham topishidir:

Erur mahz taqvo-yu lekin riyosiz,
Ubudiyat sarf-u ayni talattuf.

Kishiga ozor berish – uning qadri, g‘ururi va fazilatlarini mensimaslik b-n barobar. Tasavvuf muomala-munosabatda “el qavl-u fe’lig‘a” zo‘r-u zulm yetkazishni Haq tomonidan man etilgan amrlarga qarshi borish, ya’ni gunohi azim hisoblaydi. Bu haqiqatlarni shoir shunday shaklda bayon etgan:

Ne el qavl-u fe’lig‘a andin taaddi,
Ne Haq amr-u nahyig‘a andin tasarruf.

Tasavvufda to‘rt turli xotira xususida fikr yuritiladi. Bular: shaytoniy, nafsoniy, malakiy va rahmoniy xotira. Rahmoniy xotira – insonni chalg‘itmaydigan, ustuvor xotira. Qalb barcha xavotir va o‘tkinchi orzu-yu tashvishlardan forig‘ bo‘lgach, rahmoniy xotira inson xotirjamligining bir manbayiga aylanadi. Bu esa solikning kamolot bosqichlaridan yuqori ko‘tarilib, ishq manziliga yaqinlashganidan nishonadir. G‘azal maqta’sida tasavvufning tub mohiyati va asosiy sharti haqida bunday deyilgan:

Qilib Haq vujudida mahv o‘z vujudin,
Navoiy, muni bil tariqi tasavvuf.

Bu fikr – vahdati vujudga erishilajak maqomga berilgan aniq ta’rif. Unga yetishgan tolib yoki oshiq dunyodagi barcha narsalarning paydo bo‘lishini yagona bir vujud tufayli deb biladi. Bu vujud qachonlardir ishq va jabarut olamida yashirin bo‘lgan va o‘zining mavjudligini zohir aylagan Alloh taolodir. Zero, bu Vujudning borlig‘i – ishq, botini nurdir. Shu Vujud bo‘lmasa, ishq ham, mavjudot ham bo‘lmasdi. Demak, dunyodagi barcha borliqlar ishq tufayli va ishq u-n yaratilgan. Olamning joni esa shu Vujud siyratidagi nurdan iborat. Haq vujudida o‘z vujudin mahv etish degani, ana shu ishq, ana shu nurga foniy bo‘lishdir. Tasavvufning so‘nggi manzili ham mana shu.

Ad.: *Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011.*

I.H.

TASBE’ (ar. − barmoq bilan ko‘rsatish) − so‘z takroriga asoslangan lafziy san’atlardan biri. Bunda baytning birinchi misrasi qaysi so‘z yoki ibora b-n tugasa, ikkinchi misrasi o‘sha so‘z yoki ibora b-n boshlanadi. U intonatsion pauza o‘rnini belgilab, baytning ifodaliligini ta’minlabgina qolmay, fikr izchilligi, mazmun uzviyligini ham ta’minlab, so‘z yoki ibora, misra va bayt o‘zaro zanjir hosil qiladi.

T. − N.ning sevgan usullaridan biri. U g‘azallarida ham, dostonlarida ham bu san’atga tez-tez murojaat qiladi. M-n:

Shoh ila no‘sh qildi gulgun mul,
Mul alar chehrasin qilib gulgul...

Orzu aylar labing ollinda jon bermakni Xizr,
Xizr suyidin o‘luk umr aylagandek orzu.

Ba’zan bu takror baytlararo ham amal qiladi – bir bayt qaysi so‘z bilan tugasa, ikkinchi bayt o‘sha so‘z b-n boshlanadi.

G‘azal boshdan-oyoq T. asosiga qurilishi ham mumkin. M-n, N.ning “Yordin ayru ko‘ngul...” deb boshlanadigan g‘azalini A.Rustamov T.ga kiritadi va bunday usul T.ning eng murakkab namunasi ekanligini ta’kidlaydi:

Yordin ayru ko‘ngul – mulkedurur sultoni yo‘q,
Mulkkim sultoni yo‘q, jismedururkim, joni yo‘q.

Jismdin jonsiz ne hosil, ey musulmonlarkim, ul
Bir qaro tufrog‘dekdurkim, gul-u rayhoni yo‘q.

Bir qaro tufrog‘kim, yo‘qtur gul-u rayhon anga,
Ul qarong‘u kechadekdurkim, mahi toboni yo‘q.

Ul qarong‘u kechakim yo‘qtur mahi tobon anga,
Zulmatedurkim, aning sarchashmayi hayvoni yo‘q.

Zulmatekim, chashmayi hayvoni aning bo‘lmag‘ay,
Do‘zaxedurkim, yonida ravzayi rizvoni yo‘q.

Do‘zaxekim ravzayi rizvondin o‘lg‘ay noumid,
Bir xumoredurki, anda mastlig‘ imkoni yo‘q.

Ey Navoiy, bor anga mundoq uqubatlarki, bor
Hajrdin dardi-yu lekin vasldin darmoni yo‘q.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Т., 1979; Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Л., 1972; Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2010.*

E.O.

TASDIR (ar. – birinchi o‘rinni berish yoki birinchi o‘rinni olish) – so‘z takroriga asoslangan lafziy san’atlardan biri. Bunda bayt qaysi so‘z b-n boshlangan bo‘lsa, o‘sha so‘z b-n yakunlanadi. M-n:

Rum-u Chin bo‘ldilar anga mahkum,
Balki xoqoni Chini Qaysari Rum.

Bahona qilmay el qonin to‘karsen,
Manga yetkach, qilursen bir bahona.

A.Rustamov T.da bir so‘z baytning ikki o‘rnida takrorlanadi va bu san’at takrorlanuvchi so‘zning o‘rniga qarab bir necha turga bo‘linadi, deydi va ularni 6 guruhga ajratadi.

Birinchisi – baytning boshida kelgan so‘z oxirida ham keladi:

Zo‘ri olinda pil o‘ylakim mo‘r,
Har tuki soy-yu pil chog‘lig‘ zo‘r.

Ikkinchisi – birinchi misra boshidagi so‘z ikkinchi misra boshida ham takrorlanadi:

Yetti iqlim hukmronlarig‘a,
Yetti so‘z o‘tmagan gumonlarig‘a.

Uchinchisi – baytning ikkinchi misrasi boshidagi so‘z misra oxirida yana keladi.

Jomi zar ichra bodai afsar,
Ozar ichra edi yana ozar.

To‘rtinchisi – baytning birinchi misrasi o‘rtasidagi so‘z ikkinchi misra boshida qaytariladi:

Istadi surma aylabon ta’jil,
Surmayi charx chekti ko‘ziga mil.

Beshinchisi – birinchi misra o‘rtasidagi so‘z ikkinchi misra oxirida takrorlanadi:

Gar Navoiy xo‘blar saydidur, ammo qilmamish
Sendin o‘zga kimsa ul oshuftayi rasvoni sayd.

Oltinchisi – birinchi misra o‘rtasidagi so‘z ikkinchi misra o‘rtasida qaytariladi:

Yuziga mehr bandavu oti Mehr,
Evrulub mehrdek boshig‘a sipehr.

Uningcha, yana T.da takrorlanuvchi so‘z lafzdosh, o‘zakdosh va ikki ma’noli bo‘lishi ham mumkin.

V.Rahmonov ham T.ning tajnisli, tazodli, tardi aksli, iltizomli kabi ko‘rinishlari mavjudligini ko‘rsatadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Девони Фоний. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Шамухамедов А. Традиция татаббуъ в творчестве Алишера Навои. – Т., 1984; Ўзбек адабиёти тарихи. 2-том. – Т., 1978.*

E.O.

TATABBU’ (ar. – ergashish, izdoshlik) – salaflar yoki zamondosh shoirlarning asarlaridan ta’sirlanib, ulardagi vazn, qofiya, radifni saqlagan holda, o‘sha mavzu va g‘oyani davom ettirib, ri-

vojlantirib, yoziladigan asar. Lekin ba’zida bu unsurlardan ayrimlari, m-n, vazn yoki qofiya yangilanishi, bundan tashqari, g‘oya va obrazning yangi qirralari ochilishi, tasviriy vositalar kuchaytirilishi mumkin. T. ba’zida o‘xshatma, javobiya, nazira ham deyiladi. T. va nazira o‘rtasida farqli jihatlar mavjud: nazirada o‘xshashlik, tenglik ma’nosi bo‘lsa, T. ergashish, izidan borishdir.

O‘zbek she’riyatida T. tarixini maxsus tekshirgan B.Fayzullayev ularni 4 guruhga bo‘ladi: tazmin T. (T. bog‘lanayotgan g‘azaldan bayt yoki misra keltirish), ma’naviy T. (pand-nasihat mavzuyidagi T.), masnu’ T. (she’riy san’atlarga asoslangan T.), matbu’ T. (mazmun va shakl birligiga rioya qilish).

T.ning kelib chiqishiga qalam kuchini sinab ko‘rish maqsadida buyuk so‘z san’atkorlari “panjasiga panja” urish, salaflar yoki zamondosh shoirlarning mashhur she’rlariga javobiya bitish orqali o‘z mahoratini shakllantirish, badiiy barkamol asarlar yaratishga intilish va boshqa sabab bo‘lgan. T. u yoki bu shoir mahoratini shakllantiribgina qolmay, adabiyot taraqqiyotiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Chunki T. vositasida adabiyotga yangi mavzu, g‘oya, obraz, tasviriy vositalar, janr va uslub kirib keladi, yangi an’analar paydo bo‘ladi.

T. taqlid emas, balki T. bog‘lanayotgan asarning mavzu-g‘oyasi, shakliy unsurlarini saqlagan holda, uni mazmun va shakl jihatidan rivojlantirib, o‘ziga xos originallikka erishishdir. Boshqacha aytganda, T. adabiy izdoshlik va ijodiy bellashuv bo‘lib, u an’ana, yangilik va mahoratning o‘zaro omixtalashuvidan tashkil topadi. T. originalligi va shoirning badiiy mahorati b-n baholanishi bejiz emas. T. bog‘lanayotgan asar badiiy jihatdan qanchalik barkamol bo‘lsa, T.navisning vazifasi shunchalik qiyinlashadi. T. o‘zi javob qilingan asarning soyasiga aylanib qolmasligi, balki uning muqobiliga qo‘yadigan darajada bo‘lishi kerak. Sharq shoirlari T.ni adabiy mahorat maktabi sifatida baholashadi.

Sharq adabiyotida T. shoir iste’dodining mezoni bo‘lib kelgan. Uning qaysi mashhur shoirga qanday T. qilganligiga qarab, mahoratiga baho berganlar. Mumtoz adabiyot nazariyasiga oid asarlarda, adabiy tazkiralarda “falon asarga muvaffaqiyat bilan tatabbu’ qildi”, “falon asarga hech kim tatabbu’ qilolmadi” kabi baholarning uchrashi bejiz emas. M-n, N. “M.N.”da Lutfiyning umri oxirida “oftob” radifli forsiy g‘azali yozgani, barcha zamondoshlari unga T. bog‘lagani, lekin hech qaysisi g‘azal matla’sini undan o‘tkazib yozolmagani to‘g‘risida ma’lumot beradi.

O‘zbek adabiyotida T. asosan g‘azal janrida rivojlangan bo‘lib, T.navislik XII asrda Rabg‘uziyning “Qisas ar-Rabg‘uziy”, Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asarlari ichida kelgan g‘azallarga javob yozish b-n boshlagan. M-n, Amiriy “Dahnoma”sida “Muhabbatnoma”dagi g‘azallarga alohida T.lar bor. N. T.navislikni alohida adabiy yo‘nalish darajasiga ko‘targan. “D.F.”da Hofiz g‘azallariga 211 ta, Sa’diyga 22 ta, Xusrav Dehlaviyga 32 ta, Jomiyga 31 ta, Kamol Xo‘jandiyga 4 ta, Shayxim Suhayliyga 3 ta, Hasan Dehlaviy, Ahmad Hojibek (Vafoiy), Husayn Boyqaro (Husayniy), Salmon Sovajiylarga 2 tadan, shuningdek, Sohib Balxiy, Sayfiy, Ismat Buxoriy, Kohiy, Kotibiy, Shohiy Sabzavoriylarga bittadan T. mavjud. XVIII asr oxiri – XIX asr 1-yarmida yashab ijod etgan iste’dodli shoir Kulfat birgina N. g‘azallariga 162 ta T. bog‘lagan. Bundan tashqari, Hofiz Xorazmiyning Hofiz Sheroziy va Kamol Xo‘jandiy, Lutfiyning Hofiz Sheroziy, Sakkokiy va Atoiy, Husayniyning Lutfiy, Bobur, Ubaydiy, Mashrab, Nodira, Munis, Ogahiy va boshqa shoirlarning N., Mashrabning Nasimiy va Lutfiy g‘azallariga T.lari mashhur.

Avaz turkum T.lar yaratgan, ya’ni salafining bir she’riga bir necha T. yozgan.

N. “X.”si ham buyuk salaflariga T. bo‘lib, “H.A.” − Nizomiy Ganjaviyning “Maxzan ul-asror”, “Farhod va Shirin” − Amir Xusrav Dehlaviyning “Shirin va Xusrav”, “Layli va Majnun” − Xoju Kirmoniyning “Gavharnoma”, “Sab’ayi sayyor” − Ashraf Marog‘iyning “Haft paykar”, “Saddi Iskandariy” − Abdurahmon Jomiyning “Xiradnomayi Iskandariy” dostonlariga nazira tarzida bitilgandir. “L.T.” esa Farididdin Attor-

ning “Mantiq ut-tayr” masnaviysiga T. – tarjimadir. Chunki shoirning o‘zi bunda “tarjuma rasmi bila” javob aytganini alohida ta’kidlaydi, ya’ni bu “asarda naziraviylik xususiyati tarjimaviylik xususiyati bilan uyg‘unlashib ketgan” (S.Olim).

Ad.: *Алишер Навоий. Девони Фоний. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Файзуллаев Б. Ўзбек шеъриятида татаббуъ тарихи ва маҳорат масалалари. НДА. – Т., 2002; Шомуҳамедов А. Ҳамкорлик самаралари. − Т., 1982; Олим С. “Мантиқ ут-тайр” ва “Лисон ут-тайр” қиёсига доир // ЎТА, 2011, 4-сон.*

Ab.H., E.O.

“TATABBU’YI AMIR VAFOIY” (q.: tatabbu’) – Ahmadbek Vafoiy g‘azaliga tatabbu’. “D.F.”dagi 554 ta g‘azalning ikkita g‘azaliga N. shunday sarlavha qo‘ygan. Bu holat ushbu she’rlarning shoir Ahmadbek Vafoiyga payravlik qilib yozilganini anglatadi. Uning g‘azalidan ta’sirlanib, g‘azalning vazn, qofiya, radifni saqlagan holda yozilganini bildiradi. N. Ahmadbek Vafoiyning ikkita g‘azaliga mahorat bilan tatabbu’ bag‘ishlagan. Ulardan biri “O‘” radifli 9 baytli g‘azaldir. Ikkinchi tatabbu’ esa “Basti” radifli 7 baytli g‘azaliga bitilgan. Ma’lumki, tatabbu’lar g‘azalga sarlavha sifatida beriladi. N. “D.F.”da shu usuldan foydalangan bo‘lib, g‘azal sarlavhasiga “T.A.V.” deb yozgan.

Ahmadbek Vafoiyning asl ismi Ahmad Hojibek, Vafoiy esa uning taxallusidir. Uning tug‘ilgan yili noma’lum, Buxoroda 1496-y.da qatl etilgan. N. “M.N.”da unga bag‘ishlab alohida fiqra yozgan. Ahmadbek Vafoiy temuriylar Uyg‘onish davrining davlat arbobi, lashkarboshisi va shoiri bo‘lgan. U o‘n yil Hirotda, 1496-y.gacha Samarqandda hokimlik qilgan. N. 1465–69-yy.da Samarqandda tahsil olgan vaqtda Ahmad Hojibek unga murabbiy va muqavviylik qilgan.

N. uning “Basti” radifli g‘azalning matla’sini “M.N.”da misol qilib keltirgan. Chunonchi: “... Bu matla’ aningdurkim:

Girifti joni man az tan ba zulfi purshikan, basti,
Kushodi parda ax ruxsori xesh-u
chashmi man basti.”

N. tatabbu’si:

Dilamburdi, baruxchunpardabosadmakrufanbastiy,
Chu duzdon gohi qasdi naqd ro‘yi xeshtan bastiy.

Ad.: *Алишер Навоий. Девони Фоний. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Шамухамедов А. Традиция татаббуъ в творчестве Алишера Навои. – Т., 1984; Ўзбек адабиёти тарихи. 2-том. – Т., 1978.*

B.R.

“TATABBU’YI MAVLONO SHOHIY” (qarang: tatabbu’) – Mavlono Shohiy Sabzavoriy g‘azaliga tatabbu’. “D.F.”ga kiritilgan 554 ta g‘azalning ikkita g‘azaliga N. tomonidan shunday sarlavha qo‘yilgan. Sarlavhalar mazkur she’rlarning Temuriylar Uyg‘onish davri adabiy muhitida fors tilida ijod qilgan shoir Mavlono Shohiydan ta’sirlanib, nazira tarzda uning vazni, qofiyasi, radifini saqlagan holda yozilganini bildiradi. N. Mavlono Shohiyning ikkita g‘azaliga tatabbu’ bag‘ishlagan. Ulardan biri “Xud” radifli 7 baytli g‘azaldir. Ikkinchi tatabbu’ esa “Nest” radifli 7 baytli g‘azaliga bitilgan. Ma’lumki, tatabbu’lar g‘azalga sarlavha sifatida berilishi mumkin. N. “D.F.”da shu usuldan unumli foydalangan bo‘lib, g‘azal sarlavhasiga “T.M.Sh.” deb yozgan.

Mavlono Shohiyning asl ismi Amir Oq Malik ibni Jamoluddin Feruzkuhiy, Mir Shohiy uning taxallusidir. 1385–1453-yy.da yashagan. N. “M.N.”da unga bag‘ishlab alohida fiqra yozgan.

N. Mavlono Shohiyning g‘azallariga nima u-n izdoshlik qilib, tatabbu’ bog‘lash sirini “M.N.”da qisman aytgan. N. Mavlono Shohiyning ikkita g‘azaliga yozgan tatabbu’sidan ularning o‘zaro adabiy aloqalari, asarlari, ular yashagan davr yoki hayoti haqida ma’lum ma’noda qimmatli ma’lumot olish mumkin.

“D.F.”da Mavlono Shohiy g‘azaliga yozilgan N. tatabbu’larining matla’sini keltiramiz. “Xud” radifli:

Fasli bahor-u har kase bo sarvi gulruxsori xud,
Man bo dili chun g‘uncha xun dar
furqati dildori xud.

Yoki “Nest” radifli:

Peshi chomi purman raxshanda
mahro tob nest,
Sog‘ari xurshedro gar tob hast in ob nest.

Ad.: *Алишер Навоий. Девони Фоний. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Шамухамедов А. Традиция татаббуъ в творчестве Алишера Навои. – Т., 1984; Ўзбек адабиёти тарихи. 2-том. – Т., 1978.*

B.R.

TATABBU’YI MAXDUM – “D.F.”da Jomiyning 31 g‘azaliga tatabbu’ va 8 g‘azali tavridagi g‘azallar mavjud. Shulardan biri, N. (Foniy) Jomiyning:

Zulfi tu bar mah pareshon karda mushki nobro,
Shox-shox afkan bar gul sunbuli serobro...

matla’si b-n boshlanadigan g‘azaliga ulug‘ shoir quyidagi g‘azalini tatabbu’ qilgan.

Tatabbu’yi Maxdumi Jomiy:

Az tag‘ori may chunon no‘sham sharobi nobro,
K-abr natvonad zi daryo onchunon burd obro.

Dar jafo dorad qaror on chashm-u dar bedod xob,
Z-on ki burdand az dil-u chashmam qaror-u xobro.

To qiyomat shomi tanhoyi buvad dar dida xob,
Yak sabo‘hiy mug‘tanam don so‘hbati ahbobro.

Gar vafo z-ahli zamon xohiy, sharobi la’l no‘sh,
Z-on ki hargiz kas nadid in gavhari noyobro.

Ey, ki go‘y dar javoniy boda no‘sh, inak bubin,
Mast dar dayri mug‘on aftoda shayx-u shobro.

Kushtayi on chashmi xunrezam, ki bahri qasdi din,
Karda jo dar ayni mastiy go‘shayi mehrobro.

Az dari ahli jahon justan murod az faqr nest,
Vasl xohiy, Foniyo, masdud kun in bobro.

Tarj.:

Tiniq mayni may tog‘orasidan
shunday ichamanki,
bulut daryodan suvni shunchalik icholmaydi.

U ko‘z jafo qilishga qaror berib,
bedod qilish bilan uyquga ketadi,
shuning uchun ko‘nglim-u ko‘zimdan
qaror-u uyquni olib ketdi.

Bir tong paytida do‘stlarning
suhbatini g‘animat bil,
(negaki) qiyomatgacha yolg‘izlik shomida
ko‘z uyquda bo‘ladi.

Agar zamon ahlidan vafo istasang la’ldek may ich,
chunki, bu noyob gavharni hech qachon
kishi ko‘rmagan.

Ey, sen, “yoshlikda may ich” deysan, mana endi
mug‘lar dayrida mast bo‘lib yiqilgan
qari-yu yoshni ko‘r.

Qon to‘kuvchi ko‘z meni o‘ldirdi, u din qasdida
ayni mastlikda mehrob burchagidan o‘rin olibdi.

Jahon ahli eshigidan murod so‘rash faqr shevasi emas,
Foniyo, agar vasl istasang bu eshikni yop.

Shuningdek, Jomiyning:

Rezam zi mija kavkab be mohi ruxat shabho,
Torik shabe doram bo in hama kavkabho...

bayti b-n boshlanadigan g‘azaliga N.:

Be ro‘yi tu shud tira az ashk maro shabho,
Ravshan nashavad shabho be moh zi kavkabho...

matla’si b-n boshlanadigan yetti baytli g‘azalini tatabbu’ qilgan.

N.ning Jomiyga bog‘lagan tatabbu’lari yuksak badiiy mahorat b-n yozilganligi u-n ham ular shoir ijodida alohida o‘rin tutadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Девони Фоний. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Девони Жомий. Жилди дуввум. – Теҳрон, 1999.*

S.R.

TATABBU’YI XOJA – N. “D.F.”da buyuk fors-tojik shoiri Xoja Hofiz Sheroziy – Shamsuddin Muhammad (1325 – Sheroz – 1388)ning g‘azallariga eng ko‘p tatabbu’ bitdi. (q.: tatabbu’) Olimlarning hisoblashicha, “D.F.”da Hofizning g‘azallari tatabbu’ida 211, tavrida esa 20 g‘azal mavjud. Aytish kerakki, N. Hofiz g‘azallarining, asosan, tasavvufiy mazmundagilariga T. bog‘lagan va g‘azallariga “T.X.” kabi sarlavhalar qo‘ygan. Shulardan biri Hofiz Sheroziyning o‘zbek kitobxonlariga yaxshi tanish bo‘lgan:

Agar on turki Sherozi ba dast orad dili moro,
Ba xoli hinduyash baxsham Samarqand-u Buxororo

Agar o‘sha Sherozlik turk (go‘zal) ko‘nglimni olsa, qora xoliga Samarqand-u Buxoroni bag‘ishlab yuboraman, deb boshlanuvchi g‘azaliga N. quyidagicha tatabbu’ bitgan:

Gar on turki Xitoy no‘sh sozad jomi sahboro,
Naxust orad so‘i mo turktozi qatlu yag‘moro.

Tarj.: Agar u xitoylik turk (mahbub) may jomini ichsa, avval bizning ustimizga ot surib, o‘ldirib talon-toroj qiladi.

Mazkur g‘azal aruzning *hazaji musammani solim (*ruknlari va taqti’yi: mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun V – – – / V – – – / V – – – / V – – –) vaznida yozilgan.

G‘azal maqta’sida N. (Foniy) Hofizning mohir g‘azalnavisligini ta’kidlab, uning g‘azallariga tatabbu’ qilgani va ma’nolaridan bahramand bo‘lganiga ishora qiladi:

G‘azal guftan musallam shud ba Hofiz,
shoyad, ey Foniy,
Namoy choshniy daryuza z-on nazmi jahonoro.

Tarj.: Hofiz g‘azallariga hamma qoyil qolgan, ey Foniy, o‘sha jahonni bezatgan nazmdan sen ham bir oz tilanib olsang bo‘ladi.

N.ning Hofiz Sheroziy g‘azallariga tatabbu’lari yuksak badiiyat va teran mazmunlarga boyligi b-n alohida e’tiborga loyiq.

Ad.: *Алишер Навоий. Девони Фоний. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

S.R.

TATABBUYI XOJA SALMON (q.: tatabbu’) – Xoja Salmon she’riga tatabbu’. “D.F.”dagi ikki g‘azalga shunday sarlavha qo‘yilgan. Bu mazkur she’rlarning mashhur fors shoiri Xoja Salmonga payravlik qilib yozilganini bildiradi. Ulardan biri “Habib” radifli g‘azaldir. Ikkinchi tatabbu’ Xoja Salmonning “Buvad” radifli g‘azaliga bitilgan. Xoja Salmon 1310–1376-yy.da yashagan. Sova shahridan bo‘lgani u-n Salmon Sovajiy deb ham ataladi. G‘azallar va masnaviylar bitgan. “Qasidayi masnu’” asari mashhur bo‘lib, unga katta shuhrat keltirgan. N. yuqorida aytib o‘tilgan tatabbu’lardan tashqari Xoja Salmonning tarse’ san’ati namunasi bo‘lgan quyidagi matla’siga ham tatabbu’ qilgan:

Safoyi savfati ro‘yat birext obi bahor.
Havoyi jannati ko‘yat bibext mushki totor.

N. tatabbu’si:

Chunon vazid ba bo‘ston nasmi fasli bahor.
K-az on rasid ba yoron shamimi vasli nigor.

N.ning yozishicha, Xoja Salmonning yuqoridagi baytiga ko‘p shoirlar tatabbu’ qilganlar, lekin ularni muvaffaqiyatli chiqqan deb bo‘lmaydi: “Bu matla’ga tatabbu’ qilg‘on suxanvorlar va nazmgustarlar chun muqobalada debdurlar, lat yebdurlar”. N. tatabu’si esa tarse’ san’atining barcha talablariga to‘liq javob beradi hamda shoirning badiiy mahoratini o‘zida namoyon etadi. N.ning “M.L.”da “Basorat ahli mulohaza qilsalar bilurlarki, bu matla’ tarsi’ga voqe’ bo‘lur, aybdin muarro va murassa’g‘a kelur, e’tirozdin mubarrodur”, deya o‘zining Xoja Salmon matla’siga qilgan tatabbu’siga to‘xtalib o‘tishi bejiz emas.

Ad.: *Алишер Навоий. Девони Фоний. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

Q.E.

TATABBU’YI XOJA HASAN (q.: tatabbu’). Hasan Dehlaviy – (1254–1337/38) Najmuddin Hasan. 1280–85-yy.da Xusrav Dehlaviy b-n Multonda Sulton Muhammad xizmatida bo‘lgan. She’rlar devoni va “Ishqnoma” masnaviysi bor. G‘azalda Sa’diyga ergashgan, u uylanmagan, kambag‘alona hayotni ma’qul ko‘rgan, qabri Avrangobodda. (q.: Hasan Dehlaviy). “Favoyid ul-fuod” (“Yurak foydalari”) nomli nasriy asari Nizomuddin Avliyo (shoirning piri) ning aytgan so‘zlari majmuasidir. Unda shoir tarjimayi holiga oid ma’lumotlar ham bor. Kamol Xo‘jandiy, Hiloliy, Binoiy, Mushfiqiy kabi shoirlar unga payravlik qilganlar.

N.ham “N.M.”da uni shayxlar qatorida alohida nomini zikr qilgan va she’riyatidan bahramand bo‘lgan.

“D.F.”da Hasan Dehlaviyning ikki g‘azaliga N.ning 2 tatabbu’si keltirilgan. Shulardan biri N. Xoja Hasanning:

No‘shi labe darrasid, hush biraft az Hasan,
Shukr Xudovandro azhaba annal-hazan...

matla’li g‘azaliga quyidagi g‘azalini tatabbu’ qilgan.

Tatabbu’yu Xoja Hasan:

Garchi baloyi xumor kard fuzun huzni man,
Mug‘bachavu may valek azhaba annal-hazan.

Har shikani zulfi o‘ joyi hazoron dil ast,
Turfa ki on bandi zulf hast shikan bar shikan.

Shabnami xay bar gulash bar shafaq omad nujum,
Ne shafaq-u ne nujum, xuni dil-u ashki man.

Bar tani o‘ pirahan hast garon az harir,
Nest ajab, gar zi rashk pora kunam pirahan.

Z-otashi ohi dilam hast zabonazabon,
Lab shuda purobila, bin asarash dar dahan.

Sinayi man ko‘hi g‘am, mekanam az noxunash,
Bori dilam Besutun, man ba tahash Ko‘hkan.

Xisrav-u Hofiz turo, Foniy, agar hodiand,
Payraviyi Jomiyat hast ba vajhi Hasan.

Tarj.: Xumor balosi g‘amimni orttirgan bo‘lsa ham, may b-n mug‘bacha bizdan g‘amni ketkazdi.Zulfining har o‘rimi minglarcha dilning maskanidir. Shunisi taajjubki, u zulfing bo‘g‘imi zanjir uzra zanjirdir.

Uning gul yuzidagi ter shabnamlari go‘yo shafaqdagi yulduzlardir, shafaqdagi yulduzlar emas, dilim qoni-yu ko‘zim yoshidir.

Tanida qimmatbaho ipakli ko‘ylagi bo‘lsa-yu, men uni rashkdan pora qilib, yirtib tashlasam, ajablanmang.

Tilim, dilim o‘tining alangasidir, labimdagi uchuqlar o‘sha o‘tning asaridir.

Ko‘ksim g‘amning tog‘i, uni tirnoq b-n qaziyman, dilim yuki Besutun tog‘i, men uning ostida tog‘ qazuvchi Farhodman.

Ey Foniy, Xisrav bilan Hofiz senga yo‘l ko‘rsatuvchi bo‘lsalar ham, seni Jomiyga payravliging eng yaxshidir.

Xoja Hasanning boshqa bir g‘azali quyidagi bayt b-n boshlanadi:

Ey munavvar gashta ro‘yi oftob az ro‘yi tu,
Yak dile doram dar o‘ sad guna tob az ro‘yi tu...

N. mazkur g‘azalga quyidagi g‘azalni tatabbu’ qilgan:

Chun shuda sharmanda ro‘yi oftob az ro‘yi tu,
Boshad on po‘shidanash ro‘ dar sahob az ro‘yi tu.

matla’si b-n boshlanadigan yetti baytli g‘azal tatabbu’ qilgan. N.ning Xoja Hasanga yozgan tatabbu’lari o‘ziga xosligi b-n uning yuksak mahoratidan dalolat beradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Девони Фоний. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Девони Ҳасан Санжарий Деҳлавий.Тошбосма. Эрон Миллий Кенгаш кутубхонаси. Китоб рақами. №2422.*

S.R.

TATABBU’YI SHAYXI SA’DIY (q.: tatabbu’). N. asarlarida Shayx Sa’diy – (1203–1292, Sheroz)ning nomini va asarlarini hurmat b-n tilga olgan. Yoshligidan uning “Bo‘ston” va “Guliston” asarlari hamda devon va qasidalari b-n yaxshi tanish bo‘lgan (q.: Sa’diy Sheroziy).

Sa’diy asarlarining keyingi adabiyotga ta’siri g‘oyat kuchli bo‘lgan. N., “D.F.”da Sa’diyning 22 g‘azaliga tatabbu’ qilgan va uning g‘azallari tavrida 2 g‘azali bor. Jumladan, N. S.ning:

Vah ki gar man boz binam ro‘yi yori xeshro,
To qiyomat shukr go‘yam Kirdugori xeshro...

bayti b-n boshlanadigan g‘azaliga quyidagi g‘azalini tatabbu’ qilgan.

Tatabbu’yi Shayxi Sa’diy:

Har gah az tab zard yobam gul’uzori xeshro,
Dar xazon ro‘ karda binam navbahori xeshro.
Dar araq aftad, chu jismi notavonash, bingaram
G‘arqayi bahri balo joni nizori xeshro.

Az harorat chun shavad nozuk tanash dar iztirob,
Kay tavonam bast chashmi ashkbori xeshro?

Koshki tabxola az la’lash ba dandon barkanam,
To kunam forig‘ zi ranjish la’li yori xeshro.

Umri man chi-bvad ba umri o‘ fizoy, ey sipehr,
To hayot-u jon fido sozam nigori xeshro.

Ro‘zgoram tira shud az ranji on mah, kay buvad?
To digar binam safoyi ro‘zgori, xeshro!

Foniyo, chun xushtarash yobiy ba rasmi tahniyat,
Barfishon az jon ba poyi o‘ nisori xeshro.

Tarj.: Guluzorimning isitmadan sarg‘ayganini ko‘rgan mahalimda o‘z navbahorimni xazonga yuzlangan ko‘raman.

Uning notavon jismining terga tushib ketganini ko‘rganimda, o‘z zaif jonimni balo dengiziga g‘arq bo‘lgandek ko‘raman

Uning nozik tani haroratdan iztirobga tushganda, yosh to‘kuvchi ko‘zimni qanday yuma olay?

Yorimning la’l labini og‘riqdan qutqarish u-n labidan uchug‘ini tishim b-n uzib ololsam koshki edi. Ey charx, mening umrim nigorimning umriga ulanganida uning umri talaygina uzayar edi, buning u-n hayotimni ham, jonimni ham fido qilaman.

U oy kasal bo‘lgani sababli ro‘zgorim qorong‘ilashdi, ro‘zgorim yorigan chog‘ini yana qachon ko‘rar ekanman?

Ey Foniy, kasaldan tuzalganini ko‘rsang, muborakbod u-n joningni uning oyog‘iga nisor qil.

Shuningdek, Shayx Sa’diyning:

In ki tu doriy qiyomat ast, na qomat,
V-in na tabassum, ki mo‘jiz ast-u karomat...

matla’li g‘azaliga N. yetti baytli g‘azal tatabbu’ qilgan. Uning matla’si quyidagicha:

Ey ba gahi jilva qomati tu qiyomat,
On qadi ra'no qiyomat ast, na qomat.

N.ning Shayx Sa'diyga tatabbu'lari o'zining g'oyasi, badiiyati va favqulodda tashbehlari b-n ulug' shoirning ijodida alohida e'tiborga ega.

Ad.: *Алишер Навоий. Девони Фоний. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Саъдий Шерозий. Куллиёт. 4 жилдлик, 1-жилд. – Душанбе, 1988.*

S.R.

TA'DID (ar. – sanoq, miqdor, sanash) – so'z, ibora va gaplarning muayyan tartibda uyushib kelishiga asoslangan lafziy san'at. A.Rustamov T.da faqat ot turkumidagi so'zlar uyushib keladi desa, V.Rahmonov unda barcha turkumdagi so'zlargina emas, balki so'z birikmalari, hatto gaplar ham bir necha marta kelib, o'ziga xos zanjirni hosil qilishini aytadi va o'z fikrini turli shoirlar asarlaridan keltirilgan misollar tahlili vositasida isbotlashga harakat qiladi.

Shoir nimaga urg'u bermoqchi, nimani ta'kidlamoqchi bo'lsa, o'sha so'zlarni uyushtirib qo'llash orqali o'quvchi e'tiborini o'ziga tortadi. Uyushib kelgan so'z va jumlalar beixtiyor diqqatni o'ziga jalb etadi. V.Rahmonovning yozishicha: "Ta'did she'riy san'at sifatida shoirlar fikriy mushohadalarining mukammalligi va umumiyligi, biror soha yoki hislar dunyosini kengroq qamrab ola bilishlariga ko'maklashadi. Uyushgan so'zlar, birikmalar va gaplar ham intonatsion jihatdan alohida ohang kasb etadi. Uch-to'rt yoki undan ortiq so'z, birikma yoki gaplar uyushuvi kishini bezdirmaydi, aksincha, diqqatini tortadi, o'ylatadi. Chunki ta'didlar gapning biror bo'laginigina uyushtirish bilan cheklanmaydigan; gapning barcha bo'laklariga daxl etadigan usul hisoblanadi".

A.Rustamov bu san'atni uyushtirish deb atashni taklif qiladi.

N. ijodida T. san'atining ham turli ko'rinishdagi go'zal va betakror namunalarini uchratish mumkin. Xususan, "X." dostonlarida shoir bu usuldan keng foydalanadi. M-n:

Kim ko'ruptur kecha bu yanglig' uzun,
G'am kunidin qarolig' ichra fuzun.

Ham qaro, ham uzun-u ham dilband,
Mahvashim sochidin kelib monand.

Xizrmonand sabzadin rangi,
Sabzasi, suyi, ko'zgusi, zangi.

Birikmali T.ga quyidagilar misol bo'la oladi:

Ne tirikmen, ne o'luk, ne sog', ne bemormen,
Ayta olmankim, firoqingdin ne yanglig' zormen.

Mana bunday ko'rinishdagi T.larni V.Rahmonov gap T.lar deb hisoblaydi. Lekin bunday gaplar o'ta ixcham bo'lib, ikki-uch so'zdan oshmaydi.

Erur maqsad − yiroq, vodiy − uzun,
tun − tiyra, yo'l − bo'rtoq,
Bu yo'lda salb etib o'zluk yukin, o'zni sabukbor et.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Л., 1972; Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Т., 1979.*

E.O.

TA'LIM-TARBIYA VA ALISHER NAVOIY – ulug' muallim N. deyarli barcha asarlarida shaxsning xulq-atvori, axloqiy xususiyatlari ta'lim-tarbiya orqali shakllanishini, insonning fe'l-atvori o'zicha hosil bo'lmasligi, balki jamiyatdagi ma'lum kishilar jamoasida muayyan axloqiy qoidalar asosida shakllanishini bayon qilgan. U maktabdorlik yoki mudarrislik qilmagan bo'lsa ham, ta'lim va tarbiya borasida juda katta ishlarni amalga oshirgan, juda ko'p fozil kishilarni tarbiyalab yetishtirgan. Mashhur tarixchi Xondamir N.ning yoshlarga bilim va tarbiya berish u-n imkoniyatlar yaratgani haqida, jumladan,

shunday yozgan: *“Atoqli olimlar va hurmatga loyiq san’at ahlining darajalarini ko‘tarishda va martabalarini oshirishda qo‘lidan kelgani qadar harakat qilib, bunday ishlarga katta ahamiyat berdi. O‘quvchilar faqat o‘qish bilan mashg‘ul bo‘lishlari uchun ularga nafaqalar tayin etib, madrasalar bino qildi”*.

N. millatni kamolotga olib boradigan, insonlararo munosabatlarda adolat qaror topishini ta’minlaydigan odamiylikday ulug‘ ma’naviy-axloqiy sifatni jamiyat ahlining imkon qadar ko‘proq qismida tarkib toptirish kerakligiga urg‘u beradi. Darhaqiqat, milliy ma’naviyat millat ahlining qiyofasi va tabiatidagi asl axloqiy va ruhoniy qirralarni namoyon qiladi. Uning faoliyati va ijodi to‘lig‘icha har bir odamni imkon qadar “odamiy”, ya’ni ma’naviyatli qilib shakllantirishga qaratilgan va hech qachon eskirmaydigan hayotiy, axloqiy, shar’iy, falsafiy asoslar bo‘lmish Qur’oni Karim va Hadisi shariflarga tayangan. Shuning u-n turkiy millatlar o‘z hayotlarining deyarli barcha bosqichlarida N. ijodi mahsullari b-n yuzma-yuz kelaveradi.

N. fanning turli tarmoqlarini – adabiyot, tarix, til bilimlarini: san’atning har xil sohalarini musiqa, rasm, xattotlik, me’morlik va hokazolarni rivojlantirishga harakat qilish b-n birga ana shu sohalarning ijodkorlariga yordamlashgan, qimmatli maslahatlar bergan, ularni rag‘batlantirgan. N. ilmiy va adabiy asarlarni yaratishda o‘z davridagi olimlar, adiblar va shogirdlariga namuna bo‘lgan. Uning, deyarli, barcha asarlari tarbiyaviy-ma’rifiy ahamiyatga ega. Shoirning 5 dostondan iborat shoh asari “X.”da inson kamolotining barcha masalalari qamrab olingan. Undagi 1-doston – “H.A.” haqiqat, ishonch, ezgulik, sevgi va do‘stlikni ulug‘lovchi falsafiy asardir. Unda o‘sha davr u-n dolzarb axloqiy, tarbiyaviy, ijtimoiy-falsafiy fikrlar bayon qilingan. Adolat, muruvvat, saxiylik, odob, kamtarlik, qanoat, insof, ishq, vafo, rostgo‘ylik, do‘stlik, o‘zaro yordam va boshqa ajoyib fazilatlar, oddiy mehnatkashning jamiyatdagi o‘rni ifodalangan. Ana shu oliyjanob fazilatlar ta’rifida alohida-alohida hikoyalar berilgan.

“F.Sh.” dostonida san’atkor bosh mavzu – komil insonlar ishqini tasvirlash b-n birga yuksak insoniy fazilatlarni ibratomuz ifodalab bergan. Bosh qahramon Farhod – barkamol inson, oqil, zakovatli, yengilmas botir, vafodor do‘st, mehnatsevar, bilimdon va xalq hurmatiga sazovor bo‘lgan kamtarin bir yigitdir. N. Shopur qiyofasida do‘stlikning ajoyib kuchini ko‘rsatadi. To‘rt yoshidan ko‘p ilm va hunarlarni, bir necha tilni o‘rgangan Farhod o‘zining bilimi, hunarini yurt nafi, xalq foydasi u-n ishlatishga intiladi, quyosh tafti ostida ariq ochayotgan jafokash xalqqa yordam qo‘lini cho‘zadi. Mehinbonu va Shirin yuksak madaniyatli, axloqli, pok qalbli, iffatli, o‘z vatanini sevadigan va zakovatli ayollar timsolidir. Umuman, dostondagi barcha ijobiy timsollar nomusli, sof vijdonli, haqiqiy insonlardir. Dostonda N. yovuz kishilarning adolatsizligi va qabihligini ham tasvirlaydi, zulm va nohaqlikka, aldamchilik va firibgarlikka g‘azab-nafrat b-n qaraydi.

“L.M.”da ham samimiy sevgi, aql-zakovat, sadoqat va matonat madh etilgan. Qays – Majnun – shoir, faylasuf, o‘zida ijobiy fazilatlarni mujassamlantirgan inson. Layli esa vafodor, zakovatli, pok qalbli qiz. Dostonda bir-biriga ko‘ngil qo‘ygan yoshlarning sarguzashtlari, g‘am-g‘ussalari tasvirlangan, o‘sha davrdagi haqsizliklar aks ettirilgan.

“X.”ga kiritilgan 4-doston “S.S.” Sharq xalqlari orasida mashhur bo‘lgan Bahrom Go‘r afsonasi asosida yaratilgan. Unda insonning faoliyati va kurashi, aql va idrok kuchi, kishilarning bir-biriga sadoqati, vafodorligi, samimiy do‘stligi, muruvvati kuylanadi. Turli mavzulardagi hikoyalarda ilm-hunar, aql va idrokni jodugarlikka, qalloblikka va haqiqiy insoniy xislatlarni jamiyat ichidagi eng qabih illatlarga: firibgarlik, yolg‘onchilik, tuhmat, ig‘vogarlikka qarshi qo‘yiladi. N. yosh avlodning ilm-hunar o‘rgangan va eng yaxshi fazilatlarga ega kishilar bo‘lishini orzu qiladi va dostonning tarbiyaviy qimmati ham ana shundadir.

“X.”dagi so‘nggi doston – “S.I.”da N.ning ijtimoiy-falsafiy fikrlari, ta’lim-tarbiyaviy qa-

rashlari ifodalangan. Iskandarning tarbiyasi, o‘qituvchilari, olimlar haqidagi mushohadalari, faylasuflarning mashvarati, Iskandarning olimlarga savoli va ularning javoblari bayon qilingan.

N. amaliy faoliyatida ham, barcha asarlarida ham Qur’ondagi axloq qoidalariga rioya qilgan. Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning eng muhim 41 ta hadislarini nazm rishtasiga osib, “A.” asarini yaratgan. Unda insonning barkamolligi masalalari alohida o‘rin olgan.

Kim musulmonlig‘ aylasa da’vo,
Chin ermas gar fido qilur jonlar,
Ul musulmondururki, solimdur,
Tili-yu ilgidin musulmonlar.

Ya’ni qo‘lidan va tilidan musulmonlarga ozor yetmaydigan haqiqiy musulmondir. Binobarin, Sharq mutafakkirlari tomonidan inson kamolotiga bag‘ishlangan va pand-nasihatlarga boy didaktik asarlar yaratishning qadimiy an’anasiga ko‘ra yaratilgan “M.Q.” asarida N. o‘z zamonasidagi barkamol insonga xos fazilatlarni aks ettirgan. 39 xil ijtimoiy guruhga mansub kishilarning axloq-u odobi haqida so‘z yuritgan: butun umrini ilohiyot sirlarini bilishga bag‘ishlagan muhaddislarni, kuch-g‘ayratini osmon sir-asrorini kashf etishga sarf etgan munajjimlarni, ishq yo‘lida jonini fido qilgan kishilarni, el-yurtda obro‘ qozongan shaxslarni tasvirlab, insonga xos bo‘lgan yuksak fazilatlarning maqsad va mohiyatini asoslab berdi. Zotan, “M.Q.” N.ning didaktikaga oid asarlaridan eng muhimidir.

Shoir tarbiyaning qudratli qurol ekanini ta’kidlagani holda odamning asliga ham juda ko‘p narsa bog‘liq ekanini bir umr esda qoladigan yo‘sinda yorqin bir tamsil b-n tasvirlaydi. U bir qit’asida tabiatida noinsoniylik hukmron bo‘lgan kimsaga tarbiya xayf ekanini, unda ezgu sifatlar shakllantirishga urinish natija bermasligini, bunday kimsalar o‘zlarining hayvoniy minazlari iskanjasidan chiqolmasligini o‘ta keskin shaklda ifoda qiladi:

Nokas-u nojins avlodin kishi bo‘lsin debon,
Chekma mehnat, latif bo‘lmas hech kasofat olami.
Kim kuchuk birla xo‘tukka qancha qilma tarbiyat,
It bo‘lur, dog‘i eshshak, bo‘lmaslar aslo odami.

Ulug‘ mutafakkir ushbu qarashni “M.Q.” asarida insonlar hayotini kuzatishdan chiqarilgan falsafiy-pedagogik xulosa sifatida yanada kuchlantirgan holda bayon etadi: *“Qobilg‘a tarbiyat qilmoq zulmdir va noqobilg‘a tarbiyat hayf. Ani adami tarbiyat bila zoye’ qilma va munga tarbiyatingni zoye’ qilma”.*

Ta’lim-tarbiyaga katta baho bergan mutafakkirning ta’lim va tarbiya berguvchi shaxslar faoliyatini qadrlashi ham tabiiydir. “M.Q.” asarining “Dabiriston ahli zikrida” bobida o‘qituvchi mehnatining qanchalik og‘ir ekanini: *“...har qattig‘ kishini bir tifl muhofazati ojiz etar, ul bir surukka ilm va adab o‘rgatgay, anga ne etar?”* tarzida qayd etadi. Qanchalik kuchli bo‘lmasin, kishi ko‘pincha o‘zining bittagina bolasini eplashdan ojiz qoladi. O‘qituvchi esa o‘shandoq bolalarning butun bir to‘dasiga ilm-u odob o‘rgatishning uddasidan chiqadi. Shuning u-n ham shogird ustozi oldida mudom qarzdordir: *Shogird agar shayxulislom, agar qozidur, agar ustod andin rozidur – Tengri rozidur.* Daho shoirning o‘zining hech kimnikiga o‘xshamagan original xulosasini:

Haq yo‘lida kim senga bir harf o‘qitmish ranj ila,
Aylamak bo‘lmas ado oning haqin yuz ganj ila.

shaklida bitilgan olamaro mashhur fardida yana quvvatlantirgan.

N. nazaricha, maktab xalqqa nur keltiradi, to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatadi, bolalarni bilimli qiladi. Mamlakat, xalq u-n maktab g‘oyat katta ahamiyatga molik:

Chu yoshlarg‘a bog‘lansa maktab yo‘li.
Bo‘lur gum ulug‘larg‘a mazhab yo‘li.

Maz.: Bolalar uchun maktab bo‘lmasa, kattalar ham o‘z yo‘llaridan adashadilar.

Bu davrda Xuroson va Movarounnahrda qancha maktab bo‘lganligi ma’lum emas. Ammo Hamidullo Qazviniyning “Nazxat ul-qulub” kitobida ko‘rsatilishicha, XII asrda Hirot shahrining o‘zida 359 ta maktab bo‘lgan. Shunga asosan, XV asrda Hirotdagi maktablar soni bundan kam bo‘lmaganini taxmin etish mumkin. Shuni ham aytib o‘tish kerakki, xonlar, amirlar va boshqa hukumat ahllari o‘z farzandlari va saroy atrofidagi amaldorlarning bolalari u-n maxsus maktab ochar yoki ular uchun xususiy muallim asrar edilar. Ular madrasa mullavachchalari yoki mullalaridan birini o‘z hovlilari yoki saroylariga taklif etar, bolalarini o‘qitishni amalga oshirish zarurligini hamma vaqt uqtirar edi. N. o‘zining xatlaridan birida: *“Har masjidning imomiga tayin qilsalarkim, ul mahalla ahlining o‘g‘il ushog‘iga maktab tutib nima o‘qitsalar”*, – deydi.

N.ning bu gapidan ochiq ko‘rinadiki, XV asrda Markaziy Osiyo va Xurosondagi maktablar masjidlar yonida ochilgan va ularga o‘sha masjid qavmlarining bolalari qatnagan, maktablarni nazorat qilib turuvchi davlat organlari bo‘lmagan, balki maktablar bevosita shohning har qaysi masjid imomiga farmon berishi yoki mahalla aholisining tashabbusi b-n ochilgan. N. asarlarida o‘z davridagi maktablarning ta’lim yo tarbiya ishlarini yakdil ifodalagan. Bolalar maktabga qabul qilingach, o‘qituvchi ularga savod o‘rgatish maqsadida, avvalo, arab alifbosi yozilgan taxtachani bergan. Bunday taxtachalar N. davrigacha va undan keyin eski maktablar tugatilgunicha savod o‘rgatish u-n yagona o‘quv quroli bo‘lib kelgan. N. “lavh zabarjad” yoki “lavh muzahhab” yoki “abjad toshi”, – deb atagan taxtachaga har bir maktabdor tomonidan qamish qalamda yirik qilib arab harflarini tartib b-n yozdirilgan. N. iborasi b-n aytganda, “lavh uzra saboq nigor” qilinardi. Harflarning so‘zda talaffuz etilishini o‘rgatish maqsadida taxtaning ikkinchi tomoniga, shu harflarda yasalgan so‘zlar – abjad yozilgan.

N.ning yozishicha, o‘sha davr maktablarida Qur’oni Karimdan tashqari, fors-tojik adabiyotining zabardast siymosi Shayx Sa’diyning “Guliston” va “Bo‘ston” asarlari ham o‘qitilgan. Bunday maktablar xalqning savodli va ilmli bo‘lishida muhim rol o‘ynagan. N. madrasa arabchada o‘quv yurti degan ma’noni bildirishini, bu oliy diniy maktab musulmon dunyosi tarixida dastavval Turonda budda monastirlari “Vixaralar” ta’siri ostida paydo bo‘lganligini, XI asrdan boshlab Islom dinini qabul qilgan boshqa mamlakatlarga ham o‘tganligini, biroq Turkiston va Erondagina o‘zining dastlabki o‘ziga xos belgilari b-n saqlanib qolgani va mustahamlanganini bayon qilgan. Ulug‘ shoir mamlakatni obodonlashtirishga, madrasalar qurishga alohida e’tibor berdi. U Hirot shahridagi “Injil” anhori bo‘yida nihoyatda chiroyli “Ixlosiya” madrasasini qurdirgan. Unga nom qo‘yilishi haqida adib bunday deydi: *“Bu madrasakim ulusi ixlosdin yasaldi, “Ixlosiya” ot qo‘yildi”.*

N. chin ixlos b-n qurilgan bu madrasani o‘sha zamonning eng namunali o‘quv maskaniga aylantirish uchun mablag‘ni ayamay, maxsus vaqf mulki belgilagan. O‘z madrasasidagi o‘quvchilarni moddiy jihatdan ta’minlab turishga harakat qilgan. Madrasadagi o‘quv ishlariga bosh mudarris rahbarlik qilgan, xo‘jalik ishlarini esa mutavalli olib borgan. O‘sha davrda madrasalardagi o‘qish muddati muayyan bo‘lmagan, o‘qish, hatto 20-yillargacha ham cho‘zilgan. Madrasaga o‘qish va yozishni, din qoidalarini bilgan, diniy kitoblarni bemalol mutolaa qila oladigan kishilargina olingan. Ilmga ishtiyoqmand yoshlar har qanday qiyinchiliklarga qaramay, madrasalarda ta’lim olishga harakat qilgan. N. “H.A.” asarining 2-maqolatida bir ilm tolibining katta umidlar b-n o‘z shahridan yo‘lga chiqib, boshidan kechirgan kulfat va mashaqqatlarini tasvirlaydi. Mazkur sarguzasht o‘sha davrdagi ilm toliblari u-n juda xarakterlidir:

Zulm durur ushbuki bir notavon,
Ilm tilab shahridin o‘lgay ravon.

Egnida avroq-u kitobi aning,
Qilgali tahsil shitobi aning.

N. zamonida xalq ilm va hunar o‘rganishni istar, lekin xalqning bu istagini amalga oshirish u-n xizmat qiladigan ta’limiy muassasalar oz bo‘lib, shogirdlik yo‘li b-n ilm, hunar va san’at o‘rganish ancha keng tarqalgan edi. Shogirdlar o‘sha davrdagi fan va san’at mutaxassislaridan tabib, kimyogar, shoir, san’atkor, hunarmand, xattot, me’mor va shu kabilardan ilm yoki hunar o‘rganardilar. Hunar-san’at ustalarining shogirdlari, ayniqsa, ko‘p bo‘lar edi.

N. o‘z davridagi maktabdorlardan so‘z yuritib, ayrimlarini bunday ta’riflaydi: “Maktab tutuvchi – gunohsiz yosh bolalarga jafo qiluvchidir... U yosh bolalarni azoblashga rag‘batlantirgan, ularni kaltaklashga o‘rgatgan, o‘zi rahmsiz, miyasi po‘lat va ko‘ngli toshdir. G‘azabidan qoshi chimirilgan, gunohsizlarga achchiqlanishga odatlangandir. Ularning ko‘pchiligida ko‘ngil qattiqligi va tama’ kasalligi oshkor va o‘zlari aql kamligiga giriftor”. N.ning muallimlarga bergan bu tavsifi ularning haqiqiy qiyofasini ochib beradi. Ular bolalarni qo‘rqituv va kaltaklash yo‘li b-n o‘qitganlar. O‘sha davrdagi muallimlar bolalarni kaltaklash, o‘qitishning zarur sharti deb hisoblaganlar. Shuning u-n N. o‘zining amaliy ishlarida ham, badiiy va ilmiy asarlarida ham o‘qituvchi qanday bo‘lishi kerakligi masalasiga alohida e’tibor bergan.

N.ning fikricha, bolalarga tarbiya va ta’lim beradigan kishi ma’lumotli va o‘qitish yo‘llarini biladigan bo‘lishi lozim edi. Adib Qays bilan Laylining domlasini shunday ta’riflaydi: *“U ustodning dars berishda shuhrati juda ketgan edi. U ajoyib kishi qabilada izzat-hurmatli bo‘l, har ishda qabila ahliga yordamlashguvchi ham edi. Zo‘r shon-u shavkatga ega, martabasining yuksakligi ko‘kka teng bir shaxs edi”*. Keltirilgan misollardan ko‘rinadiki, N. yosh avlodni tarbiyalash o‘qitish ishini har qanday tasodifiy kishiga topshirishni qoralagan. U o‘qituvchiga eng yuksak talablar qo‘ygan. Bolani tarbiyalash va unga ilm berish, uning qobiliyatini o‘stirish u-n nihoyatda bilimdon va usta tarbiyachi bo‘lishi kerakligini, bolalarga ta’lim-tarbiya beradigan o‘qituvchilar yoshlarga ilm, odob o‘rgatish mahoratiga ega bo‘lishi, o‘qitish yo‘llarini yaxshi bilishi lozim va zarurligini uqtirgan.

Odam borlig‘ini tashkil etgan jasad, jon va ruh singari uch birlikka mos ravishda Alloh tomonidan unga jismoniy, nafsoniy va ruhoniy sifatlar ham berilgan. Bu sifatlar uyg‘unligi ham insonni o‘z-o‘zidan mukarram-u mo‘tabar qilolmaydi. Demak, odam odamiylik darajasiga yetishish u-n o‘z ma’naviy dunyosini poklashi kerak bo‘ladi. Bu esa oson yuz beradigan jarayon emas:

Tuxm yerga tushib, chechak bo‘ldi,
Qurt jondan kechib, ipak bo‘ldi.

Lola tuxmicha g‘ayrating yo‘qmi?
Pilla qurticha himmating yo‘qmi?

Lola urug‘i yerga tushib, qobig‘ini qurbon qila bilgani u-n chechakka, pilla qurti jonidan kecha olgani sabab ipakka aylangani kabi odam ham o‘z nafsini, lazzatga o‘chligini yenga olsagina, yuksaladi, odamiylik martabasiga ega bo‘ladi. Har bir alohida insonning ham, har qanday jamiyatning ham, butun kishilikning ham qanday xulqiy sifatlarga, tafakkur yo‘nalishiga ega bo‘lishi tayanadigan ma’naviy hadaflariga bog‘liq.

N.ning vatan tuyg‘usi – g‘oyat teran va ko‘p qirrali sezim. Mutafakkir vatanni vatandoshlarga qarshi qo‘ymaydi, yurtni yurt ahlidan tashqarida tasavvur etmaydi vatanni odamdan aziz ko‘rmaydi. Uningcha, vatan – millat ahlini baxtli qilishga mas’ul. Shoir nazdida, vatan ko‘ngilga ko‘chmay, tuproqdan iborat bir makon o‘laroq yurakdan tashqarida qolsa, vatan egalari o‘z vatanlari ichra vatansiz bo‘lib, u singari:

Navoiy, vatan bo‘ldi manzil manga,
Bu manzildan ammo ne hosil manga? –

deya anduh chekishlari mumkinligini va buning og‘ir insoniy ko‘rgulik ekanini qayd etadi.

N. tarbiyani yomondan yaxshi, haromdan halol yasash qudratiga ega bo‘lgan ma’naviy-pedagogik vosita deb biladi. Tarbiyaning kuchidan to‘g‘ri foydalanish jamiyat a’zolari ma’naviyatining yuksalishiga xizmat qilishi haqida obrazli yo‘sinda:

Itga taallumda chu bo‘ldi kamol,
Sayd aning og‘zidin o‘ldi halol, –

deb yozadi. Bu misralarda aslida og‘zi tekkan narsa harom sanalib, qatron qilinishi kerak bo‘lgan ov iti azbaroyi tarbiya ko‘rganligi tufayli u og‘zida tishlab keltirgan o‘lja halol hisoblangani kabi odam tarbiya sababli yuksak darajalarga ko‘tarilishi, tarbiyasizlik esa uni odamlik martabasidan ayirishi mumkinligi betakror poetik shaklda aks ettirilgan.

Buyuk shoir “H.A.” dostonining “So‘z ta’rifida” bobida ham tarbiya odamni yuksaltirishi, unga yoqimli ko‘rinish baxsh etishini ta’sirli timsollar orqali tasvir qiladi:

Vard-u shajar shohid erur bog‘ aro,
Lek o‘tun silkidadur tog‘ aro.

Munda parishonlig‘i noxush qilib,
Anda murattablig‘i dilkash qilib.

Mutafakkir shoir ayni bir xil og‘ochlar va gullar bog‘da ham, tog‘da ham o‘sishini, bog‘dagi og‘ochu chechaklar go‘zallik yaratsa, tog‘da ular o‘tin qatorida ko‘rinishini tasvirlash orqali tarbiyaning inson hayotidagi tengsiz o‘rnini ko‘rsatib bergan. Ya’ni o‘sha og‘och-u gullar bog‘da tarbiya ko‘rgan, bog‘bon ularga tartib bergan, shu bois ular – chiroyli. Tog‘dagi og‘och-u gullar esa tarbiya ko‘rmagan, o‘z hollaricha tartibsiz o‘sib yotadi. Tarbiya ko‘rmaganlik sabab ular o‘tin qatorida qabul qilinadi, ya’ni qadrsizdir.

N.ning bu qarashlari milliy ta’lim-tarbiya tizimiga falsafiy-nazariy asos deyish mumkin. Agar ta’lim-tarbiya jarayoni buyuk mutafakkir qayd etgan jihatlarni hisobga olgan holda tashkil etilsa, kutilgan pedagogik samaraga erishiladi.

Ad.: *Алишер Навоий. ТАТ. 10 жилдлик, 1-10-жилдлар. – Т., 2011; Йўлдошев Қ. Ўзлик йўли. Alisher Navoi. 2021; Толаметов А. Алишер Навоий таълим-тарбия ҳақида. https://znanio.ru/media/alisher navoij talim tarbiya hakida na uzbekskom 256407.*

S.O‘.

TA’RIZ (ar. − ishorali so‘z aytish, kinoya bilan so‘zlash) − maqtab turib, fosh qilishga asoslangan ma’naviy san’at. Bunda shoir go‘yoki birovni maqtayotganday bo‘lsa-da, aslida uning kirdikorlarini fosh qiladi, kinoya va kesatish orqali qahramonining asl basharasini ochib tashlaydi. Shuning u-n ham V.Rahmonov uni maqtab turib, yer b-n yakson qilish, deb lutf etadi: “Chunki bundagi maqtov eng kuchli hajv vazifasini bajaradi”. Sababi, bu san’atda so‘z ma’nosida qo‘llanmay, kinoya, kesatish, piching, ishora ohangi etakchi bo‘ladi. Atoulloh Husayniy ta’biri b-n aytganda, “ta’riz lafzning ko‘rsatishi, aning iste’moliga ko‘ra emas, balki aning ishorasig‘a va ibora tuzilushig‘a ko‘ra bo‘lurin bildirur”.

N. ijodida T. san’atining ham go‘zal va rangbarang ko‘rinishlariga duch kelamiz. Bu san’at, xususan, dostonlarida ko‘p uchraydi. M-n, Farhod Shirinning o‘zini ko‘rmay, va’dasini olmay, bor-yo‘g‘i ta’rifini eshitib, g‘oyibona oshiq bo‘lgan Eron shohi Xisrav Parvezning sevgisiga zo‘rlik b-n erishmoqchi bo‘lib, uning mamlakatiga bostirib kirgani, shunda ham halol kuch b-n g‘alaba qozonolmagach, uni makr b-n hiyla tuzog‘iga tushirganini aytib turib, uni mana bunday so‘zlar b-n “olqishlaydi”:

Adolat ushbu bo‘lg‘ay, lavhashalloh!
Shijoat muncha bo‘lg‘ay, borakalloh!

Baytda “adolat” va “shijoat” so‘zlari teskari ma’nosida qo‘llanib, adolat − zulm, shijoat − ojizlik ma’nosida kelayapti.

Yoki “L.T.”dagi bir hikoyat shunday boshlanadi:

Bor edi bir pahlavoni zo‘rgar,
Behunarlig‘ fannida sohibhunar.

Bu yerda “sohibhunar” teskari ma’noda qo‘llanib, qo‘lidan ish kelmaydiganlarning eng yetugi ma’nosida qo‘llanyapti.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Атоуллоҳ*

Ҳусайний. Бадоеъ ус-санойеъ (А.Рустамов тарж.). – Т., 1981; Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Т., 2001; Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2010.

E.O.

TAFRE' (ar. – tarmoqlanish, shoxlash) – badiiy nutqni mubolag‘a va tashbeh vositasida go‘zal va ta'sirchan ifodalash usullaridan biri. Bunda shoir hayotiy biror hodisa yo holatni tasvirlay turib, uni o‘ziga o‘xshash, lekin aloqasi bo‘lmagan hodisa yo holat b-n qiyoslaydi va bunga ishontirmoqchi bo‘ladi. Ayni jihatdan u husni ta'lilga o‘xshab ketadi. Ma'lumki, bu san'atda muallif o‘z fikrini aslida yolg‘on bo‘lsa-da, lekin go‘zal dalil b-n asoslashga harakat qiladi. Yolg‘onligini bilib tursa-da, o‘quvchining unga ishongisi keladi, chunki bu yolg‘on tasvir manbayining haqiqiy ko‘rinishidan bir necha barobar chiroyli va jozibador. T.da esa shoir o‘z talqini har qancha to‘g‘ri deb turib olmasin, o‘quvchi bunday bo‘lishiga ishonmaydi, faqat favqulodda mubolag‘ali tasvirdan hayratga tushib, uni badiiyat namunasi o‘laroq qabul qiladi. Bu mubolag‘aning g‘uluv turiga o‘xshab ketadi. N. ijodida T.ning ham ko‘plab betakror namunalarini ko‘rishimiz mumkin. M-n, u yozadi:

O‘rtanib jismim, balo dashtida sargardon kezar,
Shu'ladin tarkib topqon bo‘yla kim ko‘rmish quyun.

Maz.: Balo dashtida mening o‘rtanib yongan jismim sargardon kezadi – boshdan-oyoq shu'ladan tarkib topgan bunday quyunni ko‘rgan kishi bormi?

O‘z-o‘zidan, bunday bo‘lishiga birov ishonmaydi. Lekin mubolag‘ali tashbehning favqulodda ohorli va go‘zalligi kishini tang qoldiradi va beixtiyor shoirning beqiyos mahoratiga qoyil qolasiz.

Charx yog‘dursa kavokibni, sirishkimcha emas,
Qayda daryo bila teng bo‘lg‘ani bordir shudrun.

Maz.: Agarda falak yulduzlarini yerga yog‘dirsa, mening to‘kilgan ko‘z yoshlarimcha bo‘lolmaydi. Shudring sira daryo bilan teng bo‘lganmi?

Bunday dahshatli tasvirlar shoir taxayyulining naqadar cheksizligini ko‘rsatadi. Beqiyos xayolot mahsullari bo‘lgan bunday badiiy yuksak tashbeh-u mubolag‘alar o‘zining tengsiz estetik ta'siri bilan o‘quvchida so‘zning bemisl qudratiga hayrat uyg‘otadi. Badiiy so‘zning oddiy so‘zdan nechog‘lik baland turishini ko‘rsatadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Шамси Қайси Розий. Ал-мўъжам. – Душанбе, 1991; Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадоеъ ус-саноеъ (А.Рустамов тарж.). – Т., 1981; Раҳмонов В. Шеър санъатлари. –Т., 2001; Қуронов Д., Адабиётшунослик луғати. – Т., 2010.*

E.O.

TAFT (f. – issiqlik, harorat) – Yazd viloyatiga qarashli qadimiy shaharcha, "Tafti nasiriy" deb ham atalgan. T. Faxriobod, Sangiston va Sherko‘h tog‘lari ustida joylashgan, suvi buloq suvi, havosi musaffo va issiq, yoqimli shamoli esib turadi, serhosil yerlaridan g‘alla, paxta va turli mevalar olinadi, o‘zining "Taftiy" gilami va shirindan shakar mevalari b-n mashhur.

T. alloma Sa'duddin Mas'ud ibn Umar ibn Abdulloh, Hiraviyning (722/ 1322) tug‘ilgan yurti.

N. "M.N."da Sharafuddin Ali Yazdiy haqida ma'lumot berarkan, shunday yozadi "...Iroqqa borurda Tafttakim, Mavlononing muvalladidur..."

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алиакбар Деҳхудо. Луғатнома. 5-жилд. – Теҳрон,1998.*

Muh.A.

TAFTAZONIY AHMAD – N.ning mashhur zamondoshlaridan biri, shayxulislom. U o‘zining "Sharhi faroiz" nomli asarini N.ga bag‘ishlagan. Bu haqda, tarixiy manbalarda ma'lumotlar bor.

N.ning sharafli nomiga zamondosh olimlar tomonidan tasnif qilingan kitoblar xususida Xondamirning “Makorim ul-axloq” asarida yozilgan va ularning ro‘yxati ham keltirilgan. “Habib us-siyar” kitobida esa Xondamir T.A. to‘g‘risida quyidagilarni bayon etgan: “Olam maydonining allomasi va odam farzandlarining pushti-panohi bo‘lib, o‘zining o‘ta dindorligi va halolligi bilan tanilgan hamda o‘ta diyonatliligi va noma’qul narsalardan o‘zini qattiq tiyishi bilan mashhur edi. Tafsir, hadis va fiqh ilmlarida tengsiz, boshqa aqliy va naqliy fanlarda esa zamonaning aksariyat olimlaridan ustun edi”.

Ul janob padari buzrukvori Mavlono Qutbiddin Yahyo ibn Mavlono Sa’diddin Mas’ud at-Taftazoniy vafotidan so‘ng shayxulislomlik vazifasini bajarishga kirishdi va qariyb o‘ttiz yilga yaqin muddat davomida Xuroson mamlakatida pokiza shariat poydevorlarini mustahkamlash ishi b-n shug‘ullandi.

T.A. (hijriy-qamariy) 916-y.ning ramazon (mil. 1510-y.ning dekabr) oyida unga g‘arazi bo‘lgan kishilarning chaquvi b-n shohlikning saodatli namunasining (Ismoil Safaviy) ul janobni jazolash va ishdan chetlatish to‘g‘risidagi muborak farmoni chiqdi. Ul hazrat o‘sha kunlari taqdir podshohining amri b-n oxirat olamiga safar qildi.

Hirot shahri jome’ masjidi yaqinida, Xalifaton darvozasi atrofida joylashgan madrasa janob shayxulislom tomonidan qurilgan binolar jumlasiga kiradi.

Ul janob tomonidan yozilgan ba’zi risolalar va turli ilm sohalariga oid asarlarga bitilgan izohlar ilm toliblari orasida mashhur, ushbu risolalarda bayon etilgan mavzular esa ko‘ngillar lavhlariga naqshlangandir.

“Boburnoma” asarida T.A. haqida batafsilroq ma’lumotlar berilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ғиёсиддин ибн Ҳумомиддин Хондамир. Ҳабиб ус-сияр фи ахбори афрод ал-башар (Инсонлар қиссаларидан энг яхши таржимаи ҳоллар) 4-жилд // Устод Жалолиддин Ҳумоий нашрга тайёрлаган // – Теҳрон, 1954; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985; Ражабова Б. Навоийнинг шахсий кутубхонаси // Сўзлар билан сўзлашув. – Т., 2023.*

K.R., B.R.

TAXTI SARIPULI SANGKASHON – N. Hirot shahri atrofida bir qator bog‘lar yaratgan bo‘lib, T.S.S. shular ichida eng go‘zali hisoblanadi. Xondamir bihisht nishonli bunday sayrgoh butun Xurosonda topilmasligini aytadi.

Ad.: *Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985.*

E.O.

TAXTIRAVON (f.) – yuruvchi taxt. Safar chog‘ida oliy martabali shaxslar o‘tqazilib, sopi yelkaga qo‘yib ko‘tariladigan yoki fil ustiga o‘rnatiladigan zambil. Qadimgi va o‘rta asr Sharq mamlakatlarida 2 uzun yog‘ochga o‘rnatilib ko‘tarib yuriladigan o‘rindiq. 2 uchidan 2 kishi ko‘tarib yurgan. T.da podsho, xon, amir, lashkarboshi, turli amaldorlar, shuningdek, malikalar, badavlat xonadonlarga mansub ayollarga xizmat ko‘rsatilgan. T. keyinchalik Sharqdan G‘arb mamlakatlariga, xususan, Yunonistonga (mil. av. IV asr), Rimga (mil. av. I asr) o‘tgan. Dastlab T.dan ayollar va bemorlar foydalanishgan. Rim imperiyasida dabdababozlik belgisi hisoblangan (serhasham bezatilgan, ko‘tarib yuruvchining tashqi qiyofasi, kiyimi bir xil bo‘lishiga e’tibor berilgan). Majoziy osmon. Sulaymon (a.s.)ning taxtini ham aytadilar. Chiroyli yurishli otga ham ishora qiladilar. Banot ush-na’sh turkumidagi 4 na’sh yulduzi ham ko‘zda tutiladi. T. iborasi N.ning “S.S.” dostonida uchraydi. 2-iqlim yo‘lidan kelgan musofir sariq qasrda o‘tirgan shoh Bahromga Zayd va Zahhob hikoyatini so‘zlab beradi. Hikoya qahramoni Zahhob zargar donishmand, fozil, muhandislikda tengi yo‘q ham nihoyatda ayyor edi. U shohning ko‘nglini olish u-n kun-u tun ishlab, oltindan taxt yasaydi. 8 zinali bu taxtga shoh oyoq qo‘yganida, zinalar paydo bo‘ladi, so‘ngra yig‘iladi.

Bermagay el chekarga tab-u tavon,
Bu ekin olam ichra "taxti ravon".

Shoirning bu xayoliy taxti hozirgi lift, eskolatorlarni eslatadi. Bu esa N. dahosining teranligini, uning tafakkur olami naqadar kengligini, kashfiyotchi olim bo‘lganiga ochiq dalildir.

Ad.: *Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Бурҳони қотеъ. Жилд 1. – Душанбе, 1993; Фарҳанги забони точик. Жилд 2. – М., 1969; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. – Т., 1984; Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4-жилд. – Т., 2008.*

E.O.

TAXTI XOTUN – Murg‘ob b-n Balx viloyati oralig‘idagi joy. Sulton Husayn Boyqaro va unga qarshi bosh ko‘targan Darvesh Alibek o‘rtasidagi yarashuv shu yerda amalga oshirilgan. Bu haqda "Habib us-siyar" muallifi kitobning "Amir Nizomiddin Darveshali kitobdorning ahvol sahifasida nifoq asarlarning paydo bo‘lishi va Xoqon Mansurning Balxga kirishi qissasi" nomli faslida batafsil ma’lumot bergan. Ma’lumki, Darvesh Ali isyon ko‘targanda Sulton Husayn mirzo N. dan ranjigan, chunki shoirning dushmanlari unga Darvesh Ali bu ishni akasining maslahati b-n qilgan, deb uqtirgan edilar. Shoh huzuriga kelgan N. bu gaplarni eshitib qattiq ta’sirlangan. Shunda N.ning yaqin kishilaridan bo‘lgan Xoja Dehdor zakiylik b-n vaziyatni yumshatishga erishgan va Darvesh Aliga nasihat qilish hamda itoatga keltirish u-n Balxga borishga ruxsat olgan.

Xoja Dehdor yo‘lga chiqqandan so‘ng Sulton Husayn, N. va boshqa amirlar katta lashkar b-n Murg‘obga kelgan. So‘ngra yurishini davom ettirib, Balx chegarasiga yaqin T.X. mavzesida to‘xtagan. Bu orada Xoja Dehdor Darvesh Alibek b-n uchrashib, uni isyon yo‘lidan qaytishga, shohga itoat etishiga ko‘ndirgan. Ular birgalikda T.X.ga yo‘l olganlar. O‘rduga uch farsah qolganda Xoja Dehdor Darvesh Alini bir joyga tushirib, o‘zi shoh huzuriga kelgan. Sulton Husayn Darvesh Alining itoatga kelganidan mamnun bo‘lib, "Biz uning gunohlarini afv qildik, hech qanday xavotirsiz huzurimizga kelaversin", – degan. Shundan so‘ng Xoja Dehdor Darvesh Alini T.X.ga olib kelgan va yarashish sodir bo‘lib, Darvish Ali yana ulug‘ amirlar qatoridan o‘rin olgan.

Mazkur joyning T.X. deb atalishi qadimda hukmronlik qilgan turkiy sulolalarga mansub ayollardan biri b-n bog‘liq bo‘lishi kerak. Chunki o‘tmishda "xotun" so‘zi turkiy malikalarning unvoni sifatida qo‘llangan.

Ad.: *Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985; Ғиёсиддин Хондамир. Ҳабиб ус-сияр. – Т., 2013.*

Q.E.

TASHBEH (ar. − o‘xshatish) − ikki narsa, holat, tushuncha, harakat, hodisa o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanib, ularni bir-biriga qiyoslash orqali o‘ziga xos belgi-xususiyatini aniqroq, yorqinroq, to‘laroq, bo‘rttiribroq ko‘rsatishga asoslangan ma’naviy san’at. Badiiy tafakkurning dastlabki unsurlaridan bo‘lgan T.ni so‘z san’ati darajasiga ko‘tarila borganda paydo bo‘lgan birinchi san’at deyish mumkin. Uning ilk namunalari xalq og‘zaki ijodiga mansub asarlar orqali yetib kelgan. Keyinchalik T. asosida istiora, tashbeh, mubolag‘a, ruju’, tajnis, iyhom kabi ko‘plab san’atlar paydo bo‘lgan. Boshqa san’atlar b-n omixta holda kelishi ham buning isbotidir.

T.dan maqsad tasvir obyektini yoki uning biror xususiyatini yorqinroq tasvirlash va chuqurroq ochib berishdan iborat bo‘lib, u muallifga o‘z fikr-u mushohadalari, tuyg‘u-kechinmalari, zavq-u taassurotlarini obrazli yo‘sinda go‘zal va ta’sirchan ifodalash beqiyos imkoniyatlar yaratadi.

T. − badiiylikning asosiy sharti. T. bo‘lmasa, badiiy so‘zning o‘zi bo‘lmaydi. Shuning u-n ham asrlar davomida bir-biridan ohorli va betakror, ba’zida favqulodda go‘zal T.larning butun bir xazinasini yaratganlarki, ularning "xilma-xil ko‘rinishlari badiiy tafakkurning ajoyib kashfiyoti hisoblanadi".

T. to‘rt qismdan tashkil topadi: 1) mushabbah − o‘xshatilgan narsa; 2) mashabbah un-bih (o‘xshayotgan narsa); 3) odoti (vositayi) T. − o‘xshatish vositasi; 4) vajhi tashbeh − o‘xshatish sababi. Mumtoz she’riyatda T. ko‘pincha *-dek (-day)* qo‘shimchasi, *kabi, misli, yanglig‘, monandi, andoqki, chu, xuddi, go‘yo, bamisoli* kabi ko‘makchilar yordamida yuzaga keladi. M-n:

Yugurur har kirpikimga ortilib bir qatra yosh,
Sho‘x yoshlardekki, o‘ynarlar
chubuq markab qilib.

Bu yerda mushabbah − ko‘z yoshi; mushabbah un-bih − sho‘x yoshlar, T. vositasi − *-dek* qo‘shimchasi, o‘xshatish sababi − yuguriklik, ya’ni kiprikka osilib yugurgan ko‘z yoshi xivich otga minib chopgan yosh bolaga o‘xshatilayapti.

Bu yerda T. bir qator boshqa san’atlar b-n birgalikda kelyapti: yosh so‘zining ko‘z yoshi va yosh bolani bildirib kelayotganida tajnis, ko‘z yoshining bolaga o‘xshab yugurishida tashxis va mubolag‘a san’atlari mavjud va h.k.

T. haqiqiy va majoziy deb ham ba’zida tasniflanadi: o‘xshatish hayotiy asosga tayansa, haqiqiy, xayoliy narsa qiyoslansa, majoziy deyiladi.

N. tashbehlari hamisha o‘zining hayotiyligi b-n ajralib turadi: u tevarak-atrofdagi hamma ko‘rib, lekin hech kim e’tibor bermaydigan narsa-hodisalardan o‘z fikrini go‘zal va ta’sirchan shaklda ifodalash u-n favqulodda ajoyib va ohorli qiyoslar, o‘xshatishlar topadi:

Andoq ko‘rundi sabza arosinda lolalar
Kim, sabzxatlar ilgida oltun piyolalar.

Bu yerda maysalar ichra yashnab turgan lolalar qo‘lida oltin piyola tutgan go‘zallarga o‘xshatilyapti.

Shoirning haqiqiy shoirligi aslida u yoki bu narsani o‘zining qanchalik munosib o‘xshashini topib, go‘zal va ohorli T.lar vositasida tasvirlashida namoyon bo‘ladi.

T. yana to‘liq (T.i tom) va to‘liq bo‘lmagan T.ga ham ajratiladi: T. qilinayotgan narsa-hodisa bir-biriga hamma jihatdan o‘xshatilsa to‘liq T., ularning ayrim belgi-xususiyatlarigina nazarda tutilsa, to‘liq bo‘lmagan T. deb yuritiladi.

T. adabiyotda keng qo‘llangani, uning rang-barang xillari kashf etilgani jihatidan ilmi bade’da 5, 7, hatto 9 turi tasnif qilinadi:

1. T.i mutlaq (doimiy o‘xshatish; bu T.i sarih (ochiq o‘xshatish), T.i tom (to‘liq o‘xshatish) deb ham yuritiladi. Bunda o‘xshatish unsurlari to‘liq qatnashadi.

Orazin yopqoch, ko‘zumdin
sochilur har lahza yosh,
Bo‘ylakim, paydo bo‘lur yulduz
nihon bo‘lg‘och quyosh.

2. T.i kinoyat (kinoya yo‘li bilan o‘xshatish). Bunda o‘xshatish unsurlaridan faqat bittasi mushabbah un-bih ishtirok etadi: mushabbah ma’nosi ishora yo‘li b-n unga ko‘chiriladi. Ayni jihatdan u istioraga o‘xshab ketadi. Zero, Atoulloh Husayniyning yozishicha, T.i kinoyatda “bir nimani derlar, lekin andin o‘zga nimani iroda qilurlar”. M-n, mumtoz she’riyatda ma’shuqaning ko‘zini kiyikka, yuzini gulzorga o‘xshatish an’anaviy T.lardan hisoblanadi. Quyidagi baytda N. istiora yo‘li b-n g‘izol deganda yorning ko‘zi, gulzor deganda yuzini ko‘zda tutgan:

Sho‘x ikki g‘izolingni noz uyqusidin uyg‘at,
To uyqulari ketsun, gulzor ichida o‘ynat.

3. T.i mashrut (shartli o‘xshatish). Bunda shoir ikki narsa-hodisani bir-biriga ma’lum shart asosida o‘xshatadi, ya’ni T.i mashrut yuzaga chiqishi u-n o‘sha shart amalga oshirilishi lozim bo‘ladi. Bunda *-sa, -ganda* kabi shart qo‘shimchalari, *agar (ar, gar, agarda*) yuklamasi ishtirok etadi.

Og‘iz ichra tilingdek g‘unchada
gulbargi tar bo‘lg‘ay,
Vale bu shart ilakim,
bargi gul ichra shakar bo‘lg‘ay.

4. T.i tasviyat (barobar o‘xshatish). Bu ikki narsani bir narsaga o‘xshatishdir. Ya’ni shoir o‘zidan bir nimani va tasvir obyektidan bir belgini olib, ikkisini bir narsaga o‘xshatadi. M-n, quyidagi baytda N. o‘zining ko‘z yoshi va ma’shuqanining tishini durga o‘xshatadi:

Tishning shavqida g‘altonlik aro
yuz go‘shada qolg‘ay,
Agar inju o‘zin solsa duri ashkim qatorinda.

5. T.i aks (teskari o‘xshatish). Bunda shoir bor narsani ikkinchisiga o‘xshatar ekan, o‘z T.idan qanoatlanmay, endi keyingisini avvalgisiga qiyos qiladi. Buni T.i ma’kus ham deydilar. Boshqacha aytganda, avval mushabbah bo‘lgan so‘z keyin mushabbah un-bih, mushabbah un-bih esa mushabbahga aylanadi. N.ning quyidagi ruboiysi buning yorqin misolidir:

Suv ko‘zgusini bog‘ aro aylarda shitob,
Simob qilur erdi taharrux bila tob.
Day qildi bu simobni andoq ko‘zgu –
Kim, ko‘zgu aning qoshida bo‘lgay simob.

6. T.i izmor (yashirin o‘xshatish. Bu T.i muzmar deb ham yuritiladi). Bu zimdan o‘xshatish usuli bo‘lib, atamaning asosida ham zamirida o‘xshatish bor, degan ma’no yotadi. Shuning u-n ham Atoulloh Husayniy uni ko‘ngilda saqlamoq deb izohlaydi. Chunki bunda shoir zohiran o‘xshatishni maqsad qilib olmagandek bo‘lib ko‘rinsa-da, aslida uning maqsadi o‘xshatish bo‘ladi. Lekin T. boshqa maqsad b-n go‘yo pardalanadi. Muallif o‘zini bilmaganga, hayron bo‘lganga soladi. Ayni jihatdan u taajjub, tajohul ul-orif, husni ta’lil kabi san’atlarga o‘xshab ketadi, to‘g‘rirog‘i, ular asosida T.i izmor bo‘ladi. M-n, quyidagi bayt butunlay boshqa mazmunda bo‘lib, unda shoir mahbubaning yuzini gul bargiga, uning yuzidagi terni esa gulobga o‘xshatadi:

Yuzida terni ko‘rub o‘lsam, ey rafiq, meni
Gulob ila yuv-u gul bargidin kafan qilg‘il.

7. T.i tafzil (chekinish yo‘li bilan o‘xshatish). Bunda shoir bir narsani ikkinchi bir narsaga o‘xshatadi-da, keyin bu fikridan qaytib, o‘xshatilgan narsani o‘xshagan narsadan ustun qo‘yadi, go‘yo uning bir qusuri bunga yo‘l qo‘ymaydi.

8. T.i musalsal (ketma-ket o‘xshatish). Shoir biror narsani bo‘rttirib tasvirlash maqsadida uni birin-ketin bir nechta narsaga qiyos qiladi. Bunday o‘xshatishda mushabbah bitta, mushabbah un-bih bir nechta bo‘ladi.

Zavraq ichra ul quyosh sayr aylamas Jayhun aro,
Axtari sa’di hilol ichra kezar gardun aro.
Anglamon Jayhunda ul oy kema birla sayr etar,
Yo hilol-u mehr aksin el ko‘rar Jayhun aro.

9. T.i mo‘kad (ta’kid yo‘li bilan o‘xshatish). Bunda o‘xshatish qo‘shimchasi ishlatilmasligi, o‘xshatilgan va o‘xshagan narsa hukm-u mahkum (ega + ot-kesim) tarzida kelishi jihatidan u yopiq T. ham deyiladi. Boshqacha aytganda, kesim vazifasidagi mushabbah un-bih mushabbah haqidagi hukmini tasdiqlaydi. M-n:

Chug‘z bo‘lmish ganji vasling
shavqidin ko‘nglim qushi,
Zaxmi ko‘p ko‘ngul uyi ul chug‘zning vayronidir.

N. ijodida T.ning ushbu barcha ko‘rinishlarini ko‘p uchratish mumkin. Shu b-n birga, san’atkor asarlarida bu tasniflarga bo‘y bermaydigan o‘ziga xos, yangicha ko‘rinishlardagi T.lar ham talay. Bu hol shoir ijodida T., uning turlari, qo‘llanish va usullari, bu boradagi an’ana va o‘ziga xoslikni alohida o‘rganishni taqozo etadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Шамси Қайси Розий. Ал-мўъжам. – Душанбе, 1991; Шайх Аҳмад ибн Худойдон Тарозий. Фунун ул-балоға // Ўзбек тили ва адабиёти; 2002; Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадоеъ ус-саноеъ (А.*

Рустамов тарж). – Т., 1981; Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т., 2006; Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Т., 2001; Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2010.

E.O.

TASHXIS (ar. − shaxslantirish) − narsa-hodisalarni jonlantirib, ularga insonga xos xususiyatlarni berishdan iborat san'at. Xalq og'zaki ijodiga xos bo'lgan bu qadimiy usul yozma adabiyotda ham faol qo'llanadi. Bunda koinotdagi hamma narsa – hayvonlar-u qushlar-u hasharotlardan tortib, daraxt-u giyohlargacha, yer yuzidagi narsa-hodisalardan samoviy jismlargacha − hamma-hammasi jonlantiriladi. Y.Is'hoqovning yozishicha: "Bunday tasvir tasodifiy bo'lmay, tasvir obyekti bo'lmish hayvon, o'simlik yoki ashyoning biror belgisi bilan inson xususiyati yoxud fe'l-atvori o'rtasidagi qandaydir ramziy o'xshashlikka asoslanadi. Masalan, yog'in bulutning yig'isiga, momoqaldiroq osmonning oh-u nolasiga nisbat berilar ekan, ularning zaminida tashbehiy-istioraviy aloqa yotadi".

N. ijodida T. san'atiga ham ko'p duch kelamiz. Bu san'at buyuk so'z san'atkori "ijodidagi ramziy tasvirning yorqin ko'rinishlaridan bo'lib, shoirning mushohada quvvati va poetik mahoratining yuksakligini ko'rsatadi". M-n:

Yangi oyni qoshing go'yo qulum
debtur hilol otliq,
Qadi ta'zim uchun xamdur, bo'lub bu
nuktadin mamnun.

Bu yerda hilol jonlantirilib, insonga o'xshab ta'zim qildirilmoqda.

Quyidagi baytda esa sabo jonlantirilib, u g'unchaning yoqasini yirtib, qo'ynini harchand axtarmasin, mahbubaning jonbaxsh kalomidek so'z gavharini topmaganligi aytilmoqda:

Kaloming gavharidek topmamish, garchi sabo ilgi
Yoqasin g'unchaning yirtib,
nechakim qo'ynin axtarmish.

Ishqing etagin jon iligi birla tutubmen, − deb ushbu misrada ikkita tashxis ishlatadi: bu yerda ham ishq, ham jon jonlantirilyapti.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Фитрат. Адабиёт қоидалари // Танланган асарлар. 4-жилд. – Т., 2006; Зеҳний Т. Санъати сухан. – Душанбе, 1967; Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т., 2006; Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Т., 2001; Ҳожиаҳмедов А. Шеър санъатларини биласизми? – Т., 2001.*

E.O.

TA'RIXLAR (ar. – o'tmish, tarix, sana) – ulug' va mashhur shaxslarning tavallud va vafot yillari hamda mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotiga doir yuz bergan muhim hodisalar, xususan, turli bino va inshootlarning qurilishi, biron asar yozilishi kabi voqealar vaqtini abjad hisobida ko'rsatish. Bunda yuz bergan muhim sana she'riy yo'l b-n arab yozuvi harflari vositasida so'z, so'z birikmasi ko'rinishida yashirilgan va bu "Ta'rixlar moddasi" deyilgan. Harflarning son miqdorini qo'shish orqali chiqariladigan yig'indisiga jumal deyilgan. T.larda ko'zlangan maqsad ma'lum sanani qayd etish bo'lsa-da, san'atkorlik b-n bayon etish ham mahorat sanalgan. T.ning 2 turi mavjud: Sarih (ochiq, ravshan)da ko'zda tutilgan sana ochiq bayon qilinsa, ta'miya (berkitilgan, yashirilgan)da muammo usuli ifodalangan va bunda ko'zlangan raqamni aniqlashda ta'rix moddasini topish lozim bo'lgan. T.da ishora qilingan raqamni topishda o'tkir zehn va topqirlik talab qilingan. Ta'miya – muammoli T. to'rt: komil ul-a'dod, zoid ul-a'dod, noqish ul-a'dod, zoid-u noqis ul-a'dod kabi ko'rinishlari mavjud. Mumtoz she'riyatimizda T. g'azal, qit'a, ruboiy, masnaviy, muxammas, musaddas yo'llarida bitilgan.

N. ijodida T.ning go'zal namunalari mavjud, "H.A."ning yozib tugallangan sanasini hijriy 888-y., deya shunday ifodalaydi:

Hayrati abror ko‘rub zotini,
“Hayrat ul-abror” dedim otini.

Nuktayi ta’rixiki, ahsan edi,
Sekiz-u sekiz yuz-u seksan edi.

“F.Sh.” dostoni to‘g‘risidagi ushbu T. ham e’tiborli:

Chu tarixi yilin onglay dedim tuz,
Sekiz yuz sekson erdi dog‘i to‘qquz.

N. Sayyid Hasan Ardasher va Pahlavon Muhammad va ko‘plab ulug‘ zotlar vafoti munosabati b-n ta’rix tushirgan. Jumladan:

Sarxayli fano Sayyid Hasan raft,
Ki joyi o‘ bihishti jovidon bod.
Payi on pokrav justand ta’rix,
Biguftam: “Jannati pokash makon bod”.

Tarj.: Foniylik yetakchisi Sayyid Hasan ketdi. Uying mangu jannat bo‘lgay! U pokiza zot vafotiga ta’rix qidirdilar. *Men “pok jannat makoni bo‘lg‘ay!” deb ta’rix tushirdim*). “Jannati pokash makon bod” jumlasi ta’rix moddasi bo‘lib, abjad hisobida 894/1488–89-yy. chiqadi.

Abdurahmon Jomiy vafotidan bir yil o‘tib, Pahlavon Muhammad vafot etgan. Buni N. shunday yozadi: *“...favtining ta’rixi g‘arib uslub bila voqe’ bo‘lubdurkim, favtlarning ta’rixi bo‘lur:*

“... Agar pursad kase ta’rixi favtash,
Biguyam: “ba’di Maxdumi ba yak sol”.

Maz.: *Agar kimki vafoti ta’rixini so‘rasa, “Mahdumdan keyin bir yil o‘tgach* (Hazrati Abdurahmon Jomiy nazarda tutilgan) – *deb ayting.* Mazkur misradagi “ba’di maxdumi ba yak sol” jumlasi abjad hisobida 899/1433-y.ga to‘g‘ri keladi.

N “N.M.”da Mavlono Muhammad Tabodgoniy (q.s.) haqida zikr qilib, hazratning vafot ta’rixi “Qutbi zamon biraft” iborasida berilganini qayd qilgan. “Yoshlari sakson sakkizga yetti va sakkiz yuz to‘qson birda Chilgaziy mahallasida olamdin o‘ttilar va Xiyobonda madfundurlar. Muxlislaridin ba’zi qabrlari boshida xonaqoh va masjid imorati qilibdur va darveshlari farzandlari xizmatida sulukka mashg‘uldurlar va “Qutbi zamon biraft”, alarning favtining tarixidur”. Bu abjad hisobi bo‘yicha 891/1486-y.ga to‘g‘ri keladi.

Shu b-n bir qatorda N “X.M.”da “T.A.” asarining matla’sini keltirib, “Bu ta’rixda g‘arobat borkim, ta’rixning oy va kunining zikridin yili hisobi “jumal qoidasi” bila hosil bo‘lur”, – deb yozadi.

Bud yavmi jome’ shahri rajab ta’rixi on,
Turfatar k-in ro‘zu moh itmomi onro mazhar ast.

Yuqoridagi misrada shoir keltirgan ta’rix arab yozuvidagi “yavmi jome’ shahri rajab” jumlasi harflaridan abjad hisobida 880/1475-y. chiqadi. Hirotning mashhur olimi, shoiri va notig‘i bo‘lmish Mavlono Husayn Voizning vafoti haqidagi T.ni shunday bitgan:

Gavhari koni haqiqat, durri bahri ma’rifat,
K-o‘ ba haq.vosil shud-u dar
dil nabudash mosivoh,

Koshnfi sirri ilohiy bud beshak, z-on sabab
Gasht ta’rixi vafotash: “Koshifi sirri iloh”.

Maz.: *Haqiqat konining gavhari, ma’rifat daryosining durri. Haqqa yetishdi va dilida boshqa narsa yo‘q edi. Ilohiy sirrning kashf etuvchisi edi, shu sababdan shaksiz, vafoti ta’rixi “koshifi -sirri iloh” bo‘ldi.* “Koshifi sirri iloh” jumlasi Alloh sirlarini kashf etuvchi, – degan ma’noni anglatib, bu iboraning arab yozuvidagi harflar yig‘indisi abjad hisobida 898/1492-y.ga to‘g‘ri keladi.

N. “M.Q.” asarining yozib tugallanishi haqida shunday ta’rix bitgan:

Bu nomag‘akim, lisonim o‘ldi qoyil,
Kilkim tili har nav’ el ishiga noqil.

Tarixi chu “xush” lafzidin o‘ldi hosil,
Har kim o‘qusa, ilohi, o‘lg‘ay xushdil.

Mazkur o‘rinda ta’rix moddasi “xush” so‘zi bo‘lib (خوش), arabcha yozilishidagi harflar yig‘indisidan abjad hisobida 906/1500-y. chiqadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамсат ул-мутаҳаййирин. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ҳолоти Саид Ҳасан Ардашер. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ҳолоти Паҳлавон Муҳаммад. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Адабий турлар ва жанрлар, 3 жилдлик, 2-жилд. – Т., 1992; Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2013; Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т., 2014.*

E.Q.

TAQVIM – kalendar, yulduzlar jadvali; zij, yulduznoma; jadval. T. yil, oy va kunlar, hafta kunlari, asosiy bayramlar, astronomik ma’lumotlardan iborat. Qadimgi Rimda qarz daftarlari kalendar deyilgan, unga qarz beruvchi har oyning dastlabki kunlarida kiritiladigan foizlar – kalendarni (nomi shundan olingan) yozib borgan. Bizgacha ma’lum bo‘lgan eng qadimgi Rim kalendarga mil. 354 sanasi qo‘yilgan. O‘rta asrlarda kalendar nashri b-n cherkov shug‘ullangan, XIV asrdan Yevropada dunyoviy mazmundagi kalendar paydo bo‘ldi. Bunday kalendarlarda yilning fasl va oylari, yulduzlar turkumi va boshqalarni jadval tarzida ko‘rsatish rasm bo‘lgan. Bunday kalendarlar musulmon mamlakatlarida ham keng tarqalgan va Zij deb nomlangan. N. ijodida ham T. istilohi – *tavqim, zij* singari bir necha ko‘rinishlarda turli munosabat b-n uchraydi. Garchi T. astronomiya, fanga doir atama bo‘lsa-da, N. uni devonlarida oshiq va ma’shuqning holi, turmush tarzi, surati b-n go‘zal shaklda mantiqiy aloqalantirib, kitobxonning ham aql-shuurida, ham ruh-qalb olamida muayyan taassurot uyg‘otgan:

Har kecha qon birla jismim safhayi taqvimdek,
Go‘yiyanjum tirnog‘idin sarbasar afgor erur.

Binobarin, baytning ma’nolari kashf etilishiga “safhayi taqvim” iborasi ochqich vazifasini o‘taydi. T. sahifasida qadimda yulduzlar joylashuvi va harakatlanishi chizilgan. Yulduzlar qizil rangda, sayyoralar va burjlar esa qora rangda belgilangan. Ma’lumki, T.ning keraksiz sahifalari o‘sha sana tugagan kun so‘nggida yulib yoki yirtib olinib, tashlab yuboriladi. Shu holatga ishora qilgan N. tasvirda mubolag‘a qiladi. Lirik qahramon falak tirnog‘i – oydan, majozan taqdirdan jarohat olgan. Taqdir esa oshiq jismini har kecha – kunning oxirida qonga belab, keraksiz T. sahifasidek yirtib otgan yoki ag‘darib qo‘ygan.

N. shu devonining boshqa bir g‘azalida esa T.ni sayyoralarning jadvali ma’nosida qo‘llagan. Lirik qahramonning baxti omadli yulduz singari kulmas ekan, falakning aylanish jadvalini tuzib chiqib, saodat, tole’ onlarini kutishning hech nafi yo‘qdir:

Chu baxt axtari sa’d o‘lmadi ne sud, eykim,
Sipehr zijini hal qilg‘ali rasad qilding.

N. qaysi kalimani istifoda etmasin, har safarida so‘z san’atida o‘zining bemisl mahoratini namoyish etgan. Chunonchi, “B.V.” devonidan o‘rin olgan bir g‘azalida taqvimning boshqa bir belgisini tasvirlaydi. Qadimda zij – T.larda yulduzlar qizil, sayyora va burjlar esa ko‘k va qora ranglarda ko‘rsatilgan. Oshiqning hijron – Yordan ayriliqda o‘tgan kunlari qonli yoshlar b-n chizilgan jadval – taqvim sahifalariga o‘xshaydi:

Nomayi hajrim aro safhai taqvim kebi
Ashk qoni bila har sari chekilmish jadval.

“H.A.” dostonining “Avvalgi munojot”ida esa Allohning yakkaligi va birligi haqida so‘z ochgan N. Allohning, jumladan, insonni “Ahsani taqvim” – eng xushbichim suratda xoliq etgani haqidagi Qur’oni Karimning “Tiyn” surasidagi

4- “*Va laqod xalaqna-l-insona fi ahsani taqvimi*” oyatiga ishora qiladi:

“Karramano” keldi manoqib anga,
“Ahsani taqvim” munosib anga.

Bu yerda T. tushunchasi – tuzish, yaratish ma’nolarida qo‘llanilgan.

Ma’lumki, “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” Mirzo Ulug‘bekning o‘z rasadxonasida olib borgan astronomiyaga oid kuzatishlari asosida tuzilgan jadvallardan iborat asari. Uning maxsus nazariy qismi – muqaddimasi juda ko‘p tillarga tarjima qilingan. Shoir “F.Sh.” dostonida esa Mirzo Ulug‘bekni ta’riflay turib, uning “Ziji Ko‘ragoniy”si qiyomatga qadar insoniyat foydalanadigan kitob ekanligini ifoda etadi.

Bilib bu nav’ ilmi osmoniy
Ki, andin yozdi “Ziji Ko‘ragoniy”.

Zero, N. “M.N.” tazkirasining Shohrux Mirzoga bag‘ishlangan qismida tilga olgan T. ham XV asrlarda bu tushuncha keng tarqalganligini oshkor etadi: *“...Yil boshida taqvim istixroj qilib bu vasila bila shoyad Mirzoning muborak dindorin ko‘ra olg‘aymen deb eshikka kelib, sudurni vosita qilib, oni sudur ko‘rguzub taqvimin arz qilibturlar”*. Shuning u-n bo‘lsa kerak, ulug‘ shoir “M.Q.” asarining 25-faslini “Ahli nujum zikrida” deb nomlab, yulduzshunoslarning ahvoliga to‘xtaladi. Munajjim – yulduzlar harakatiga ko‘ra bashorat beruvchi, ish tutuvchi kasb egalarining tavqim (taqvim)i – g‘alati taqsim – nuqsonli, deya tanqid qiladi.

N.ning T. atamasi b-n bog‘liq qarashlarining tadqiqi uning astronomiya fanini atroflicha egallagan alloma bo‘lganligini dalillaydi.

Ad.: *ЎзМЭ. Календарь. 5-жилд. – Т., 2003*; *Алишер Навоий. ТАТ. 10 жилдлик, 1-10-жилдлар. – Т., 2011.*

S.O‘.

TAQVO – Allohga itoat etib, har turli tahlikadan, azobdan qutulmoq, jazoga yetaklovchi harakatlardan nafsini tiyish, gunohlardan parhez orqali himoyalanishdir. T. va ahlining ta’rif-tavsifi Qur’oni Karimda ko‘p bora keltiriladi. “Kim Alloh va Uning payg‘ambariga bo‘yinsunsa va Allohdan qo‘rqib, Unga taqvo qilsa, bas ana o‘shalargina (baxt-saodatga) erishguvchilardir (Nur: 52)”, – deyiladi “Nur” surasida. Demak, Allohdan qo‘rqish va uning rasuliga ergashishdir. “Baqara” surasida esa ahlining rahnamosi haqida shunday deyiladi: “(Haq ekanligiga) hech qanday shak-shubha bo‘lmagan ushbu Kitob g‘oyibga ishonadigan, namozni to‘kis ado etadigan va biz rizq qilib bergan narsalardan infoq-ehson qiladigan taqvoli kishilar u-n rahbar – yo‘lboshchidir (Baqara: 2-3)”. T. ahli *T.dor, ahli vara’,* shuningdek, *atqiyo* deb atalgan. “N.M.” tazkirasida Shayx Rashn Avliyo (q.t.s.) haqida shunday ma’lumot beriladi: “Hind mulkining kibor mashoyixidin va mashohiri avliyosidindur. Zohiriy ilmda komil va botiniy irfon-u nukotda mukammal. Munavvar hazirasi avliyo atqiyoning chilla o‘lturur xilvatlari mavzesidadur”. Ba’zan T.dor kishi *muttaqiy* ham deyiladi. A.Yugnakiy shunday zotlardan ekanligi urg‘ulanadi: “Adib Ahmad ham turk elidin ermish. Aning ishida g‘arib nimalar manquldur. Derlarki, ko‘zlari butov ermishki, aslo zohir ermas ermish. Basir bo‘lub, o‘zga basirlardek andoq emas ermishki, ko‘z bo‘lg‘ay va ko‘rmas bo‘lg‘ay. Ammo bag‘oyat ziyrak va zakiy va zohid va muttaqiy kishi ermish”. T.ning muhim shartlaridan biri o‘zini T. ahli sanab, kibrga berilmaslik, hech kimdan o‘zini ustun sanamaslikdir.

T. tasavvufning tamali hisoblangani bois ko‘pincha zuhd-u T., ilm-u T. birgalikda keladi. Zero, solikka faqat zuhd, faqat ilm yetarli emas, balki amal, T. juda zarurdir. “Quzot zikrida” N. shunday deydi: “Ilm-u taqvosidin ko‘ngullarda shukuh va diqqat, farosatidin bediyonatlar ko‘nglida anduh. Ko‘ngli Kalomulloh ahkomidin qaviy va hukmida muqtado ahodisi mustafaviy”. Ammo mayxona b-n bog‘liq holatlarda oshiq zohidga

qarshi borganidek, T.ni ham unutadi. “Mutrib va mug‘anniylar zikrida” mana shu hol kuzatiladi: “Andakim rubob boshin yerga qo‘yub niyoz ko‘rguzgay va qo‘buz quloq tutub ayshg‘a targ‘ib ohangni tuzg‘ay. Chun qonun va chag‘ona nolasi quloqqa tushgay va mahvash soqiy yukunub, may ayoqig‘a tushgay, ul vaqt zuhd-u taqvog‘a ne e’tibor va hush-u xiradg‘a ne ixtiyor. Agarchi ishq faqr ahlini rasvo qilurda bulardin farog‘dur va lekin ul o‘tni yoruturg‘a nay damidin el-u maydin yog‘dur”. N. shuningdek, yoshlikda qilingan T.ning ahamiyatidan bahs yuritadi: “Zuhd-u taqvo barcha vaqtda dilpisanddur, yigitlikda dilpisandroq. Tavba va istig‘no hama vaqtda sudmanddur, qariliqda sudmandroq”.

N. lirikasida T.ga munosabat boshqacha. Umuman, ta’kidlash joizki tasavvufiy istilohlar izohida lirik ifoda tarzidagi o‘ziga xoslikni inobatga olish zarur. Garchi “Yo‘q! (Ularning da’volari botildir.) Balki kim ahdiga vafo qilsa va taqvodor bo‘lsa (ana o‘sha kishi Allohning suygan bandasidir). Zero, Alloh taqvo qilguvchi kishilarni sevadi (Oli imron:76)” oyatlar ila ogohlantirilsa-da, irfoniy istiloh va ifoda, hol va maqomni hisobga olgan holda tahlil qilish lozim:

May mudom ich ul labi maygun
sanam davrindakim,
Zuhd ila taqvo harom-u may halol o‘ldi yana.

Yoxud:

Ey, hamd o‘lub mahol fasohat bilan sanga,
Andoqki, qurb taqvovu toat bilan sanga.

Taqvi ahlig‘a bilinsa edi charx avzoyi,
Aylagaylar edi bu dayrda xammorlig‘ ish.

Oshiq, rind obrazi hollarida T.ni unitish, T. ahlidan o‘zlarini ustun qo‘yish bor. T.ga munosabat lirik qahramonning ma’naviy holi b-n bog‘liq. Junun yoxud fano holida quyidagi ifodalarga duch kelinadi:

Vasl tahsili uchun, ey shayx, taqvo qilma amr
Kim, fano oyinin aylabtur manga irshod ishq!

Ammo bu kabi ifodalar T.ning muhim fazilat, baland maqom-martaba ekanligiga hech shubha solmaydi. Aslida har qanday maqomning asosida taqvo bo‘ladi. Shuning u-n valiy zotlarni ta’rif tavsifida T. ahli ekanligini N. alohida e’tirof etgan. Hatto T. to‘g‘risidagi valiy zotlarning qimmatli fikrlarini ham keltiradi: “Birav Ruvaymdin so‘rdikim, “ahvoling qanday?”. Ul dediki, “kimniki, dini – hoy-u havas, himmati – dunyo bo‘lib, o‘zi solih taqvodor va pokiza oriflardan bo‘lmasa, uning holi qanday bo‘lishi mumkin?”. Dedi: “albatta, taqvodorlar jannatlarda, Qodir podshoh huzuridagi rozi bo‘lingan o‘rinda bo‘lurlar”. Ibrohim Fotik debdurki, Abu Ya’qub Nahrajuriy debdurki, “dunyo – dengiz, oxirat – uning sohili. Kemasi – taqvo. Odamlar safar qiluvchilardir”. T. Yaratganning amrlariga bo‘ysunish, uni to‘la-to‘kis ado etish. Abadiyat orzusidagi inson, albatta, T. libosini kiyishi kerak. Bu haqida “N.M.”da shunday bayt keltiriladi: “Taqvodorlar o‘limi – mangu hayotdir. Zero, qavmlar o‘ldilar, ular esa, odamlar orasida tirikdirlar”.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

Z.R.

TAQSIR (ar. – ayb-u qusur ko‘rsatish) – kasri nafs izhoriga asoslangan badiiy san’at. Bu faxriyaning aksi bo‘lib, faxriyada shoir o‘zining iste’dod kuchi, asarlarining badiiy yuksakligi va xalq orasidagi shuhratidan iftixor qilib, ko‘tarinki ruhdagi mubolag‘ador misralar bitsa, T.da kamtarlik b-n o‘zini past oladi, yerga uradi, ilmsiz, uquvsiz, iste’dodsiz, xor, haqir, telba, devona, bechora qilib ko‘rsatadi. N. ijodida ham kasri nafsning oliy namunalarini uchratamiz. Xususan, hamd va na’t g‘azallarida bu hol bo‘rtib ko‘rinadi:

Navoiy qaysi til birla sening hamding bayon qilsun,
Tikan jannat guli vasfin qilurda gung erur go‘yo.

Isyoni ko‘p Navoiyningu yo‘q uyotikim,
Istar yetishsa muncha xijolat bilan senga.

Diniy-tasavvufiy g‘azallarida u o‘zini osiy, gunohkor, uyatsiz, tikan, zarra deb malomat qilsa, oshiqona g‘azallarida telba, majnun, devona, hatto it, egasiz it, gado, tuproq, xoshok, telba it, miskin, oludadoman (etagi iflos), nodon deb mazammat etadi. Binobarin, shoirning “Bo‘ldi o‘z nodonlig‘imni anglamoq donolig‘im” misrasini o‘qib, N. nodon bo‘lgan ekan-da, degan xayolga borishning o‘zi nodonlik. Zero, es-hushi joyida bo‘lgan har qanday o‘quvchi bu yerda buyuk san’atkor kamtarlikni haddi a’losida yetkazayotganini juda yaxshi biladi.

Yoki o‘zbek adabiy tiliga asos solgan, o‘zbek adabiyotini bir-biridan go‘zal durdona asarlar b-n boyitgan zabardast va sermahsul shoir g‘azallaridan birida: “Ey Navoiy, sendek yoshlik davrini zoye etgan kishi qarilik ayyomida yulduz kabi ko‘zlaridan yosh to‘ksa-da, sira foydasi yo‘q”, − deydi o‘zidan qoniqmay:

Ey Navoiy, sendek etgan zoyi ayyomi shabob,
Sudi yo‘q anjum kibi ashki nadomati shomi shayb.

Holbuki, u uch yarim yoshida fors-tojik mutasavvif shoiri Qosim Anvorning bir baytini yod aytib, adab ahlini hayratga solgan, besh-olti yoshlarida Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” dostonini yod bilgan, o‘n ikki yoshida “Orazin yopqoch...” deb boshlanadigan g‘azali matla’si b-n o‘z davrining malik ul-kalomi Lutfiyni qoyil qoldirgan, o‘n besh, o‘n olti yoshlarida zullisonayn shoir sifatida tanilgan edi. Shunga qaramay, o‘tgan umridan qoniqmaslik, amalga oshirgan ishlaridan ko‘ngli to‘lmaslik tuyg‘ulari, armonga aylangan orzularidan afsuslanish hislari ulug‘ N.ga ham begona bo‘lmagan.

O‘zini hammadan kam deb bilish, nihoyat darajadagi kamtarlik, andisha, xokisorlik aslida Sharq kishisiga xos bo‘lib, taqsir, kasri nafs kabi badiiy san’at va uslubiy usullar uning adabiyotdagi ifodasidir.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Т., 2001; Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2010; Эргашев Қ. Навоий ижодида “касри нафс” // “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2001, №5.*

E.O.

TAQTE’ (ar. – kesish) – aruzda yozilgan she’rlarning vaznini aniqlash maqsadida ularning baytini ohangiga ko‘ra ritmik bo‘laklar – ruknlarga ajratish. “She’r taqte’yi iborat andindurkim, bayt alfozini bir-biridin ayirg‘aylar ul nav’kim, baytning har miqdori teng tushgay ul bahrning afo’iylidin birilg‘akim, ul bayt bahrda voqe’dur”, – deb yozadi bu haqda N. “M.A.”da T. orqali har bir ruknning asl yoki tarmoq (furu’) ruknlardan qaysi biriga teng kelishi aniqlanib, shu asosda bahr nomi topiladi. M-n, N.ning mana bu bayti quyidagicha ruknlarga ajratiladi:

Meni men is- / tagan o‘z suh- /
batig‘a ar- / juman- d-etmas /,
Meni istar / kishining suh- /
batin ko‘nglum / pisan- d-etmas.

Ohang xususiyatiga ko‘ra bu ruknlar mafoiylun asliga teng keladi. Ayni rukn takroridan hosil bo‘lgan bahr esa hazaj deb ataladi. Biror-bir ruknning o‘zgarishga uchramagani, hammasi solim (salomat) ekanligi, 8 rukn – musammandan iboratligi jihatdan vaznning to‘liq nomi hazaji musammani solim bo‘ladi.

Quyidagi baytda misra oxiridagi rukn hazf zihofiga uchragani tufayli uning vazni solim emas, mahzuf bo‘ladi:

Bizing shaydo / ko‘ngul bechor- / ra bo‘lmish,
Malomat dash- / tida ovo- / ra bo‘lmish.

V – – – / V – – – / V – –
mafoiylun / mafoiylun / fau(v)lun
Hazaji musaddasi mahzuf

T. usuli ancha murakkab bo‘lganidan hozirgi aruzshunoslikda misralarni qisqa va cho‘ziq hijolarga ajratish orqali guruhlash usuli keng tarqalgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т., 1998; Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2010; Юсупова Д. Аруз ва мумтоз поэтикага кириш. – Т., 2020.*

E.O.

TAHDIS (ar. – hadis keltirish) – she’rda fikrini tasdiqlash va rivojlantirish maqsadida hadislarni aslida yoki tarjimada keltirishga asoslangan badiiy san’at. Bunda hadis qisman yoki to‘la keltirilishi mumkin. Hadis ekanligi goh eslatilsa yoki unga ishora qilinsa, goh mashhurligi, hammaga tanishligi jihatidan to‘g‘ridan to‘g‘ri keltirilib ham ketaveradi.

N. ijodida T. turli-tuman ko‘rinishlarda uchraydi. Xususan, ba’zi qit’alarini muayyan hadis tarjimasi yoki ma’no talqini asosiga quradi. M-n, “Hazrat Nabaviy hadisi tarjimasidakim, “kunfiddunyo kaanaka g‘aribon av obir-u sabilin” sarlavhali qit’asini o‘qiylik:

Dedi hazrati mafxari koinot,
Angakim edi huznin o‘ksutguchi.
Ki dunyoda bo‘lgil nechukkim g‘arib
Va yoxud aningdekki, yo‘l o‘tkuchi.

Ko‘rinib turibdiki, qit’ada Payg‘ambar (s.a.v.) hadisi nazmiy talqin qilingan.

Quyidagi baytda esa qiyomat kunida bilganini qilmagan, qilganini bilmagan olimning azobi har qanday johildan ko‘ra ko‘p bo‘lishi haqidagi hadis o‘z aksini topgan:

Qaysi johilg‘a nadomat bo‘lg‘ay ul olimchakim,
Har ne bildi – qilmadi, har neki qildi – bilmadi.

Ad.: *Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Т., 2001; Давлатов О. Алишер Навоий шеъриятида Қуръон оятлари ва ҳадисларнинг бадиий талқини. Филол. ф.б... дис. – Самарқанл. 2017.*

M.A.

TAHMURAS – qadimgi Eronning peshdodiylar sulolasiga mansub uchinchi hukmdor. 32 yil hukmronlik qilgan. T. obrazi “Samaki ayyor” sarguzasht romani va xalq qissalarida keng tasvirlangan. U devband – devlarga qiron soluvchi pahlavon bo‘lib, sajda chog‘ida otasini tosh b-n urib o‘ldirganlari u-n devlardan uning o‘chini oladi. T. “Avesto” hamda “Shohnoma”da xalqning madaniy turmush tarzini rivojlantirib, mamlakat va xalqni g‘ayritabiiy ofatlardan, dev-u ajdarlar hujumidan xalos etgan podsho sifatida madh etilgan. Uning davrida xalq libos tikish, yung yigirish, yovvoyi hayvonlarni uy hayvonlariga aylantirishni o‘rgangan. T. zamonida yozuv ham kashf etiladi va devlar unga rumiy, arabiy, forsiy va sug‘diy yozuvlarni o‘rgatadilar. Barcha devlar yuk tashuvchi ulov singari T. xizmatida bo‘ladilar. T. shohligi davrida xalq tinch, farovon yashaydi. “T.M.A.”da yozilishicha, valiahd sifatida otasi Hushangdan keyin taxtga o‘tirib, mamlakatni boshqaradi. Uning davrida qattiq qahatchilik bo‘lib, boylarga nonushta b-n kifoyalanib, kechki taomlarini bechoralarga berishni buyuradi. Shuning u-n ham ro‘za tutish T.dan sunnat qolgan deydilar. U Marvda Kuhandiz, Xurosonda Nishopur, Isfahonda Mahriz va Soriya shaharlarini bunyod etgani naql qilinadi. Taniqli muarrix Tabariyga ko‘ra, Omil va Tabaristonni

ham u bino qilgan. Yana forsiyda kitob yozish va bo‘z to‘qishni uning ixtirolariga nisbat beradilar. T. zamonida vabo ham keng tarqalgan. Har kishi sevgan odamining suratini chizib, o‘sha b-n xursand bo‘lar ekan. Butparastlik shundan kelib chiqqan deydilar.

Shahe erdi Tahmuras ofoq aro –
Ki, adl etti charxi ko‘han toq aro.
Necha devband erdi, ul arjumand,
Ajal devi oxir ani band.

N. o‘zining ijtimoiy, axloqiy, irfoniy qarashlarini ifoda etish u-n turli asarlarida T. obrazidan keng istifoda etgan. M-n:

Qani Tahmuras-u Jamshid-u Zahhok –
Ki, har bir oldi olam mulkini pok.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. TAT. 10 жилдлик, 6-жилд. – T., 2011; Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. TAT. 10 жилдлик, 8-жилд. – T., 2011.*

H.H., E.O.

TAHNIYAT – I. Qutlov, tabrik. O‘rta asr jamiyatining yuqori tabaqalarida (shu jumladan, N. mansub bo‘lgan doirada ham) kishilar bir-birlarining hayotlarida yuz bergan muhim, quvonchli voqealar b-n qutlashda ma’lum odat va tartiblarda rioya qilganlar. Uylanish, farzand ko‘rish, to‘y qilish, agar u hukmdorlar sulolasidan bo‘lsa, taxtga o‘tirish, biron bir viloyatni yoki shaharni zabt etishi, urushda qozonilgan g‘alaba va boshqa shuning singari voqealar tahniyat, ya’ni qutlash va tabriklash lozim bo‘lgan hodisalar hisoblangan. Bunda, eng avvalo, sochiq, ya’ni qutlanayotgan kishining boshidan sochish u-n oltin va kumush tangalar hozirlangan, boshqa qimmatbaho sovg‘a va tortiqlar taqdim etilgan. Agar tabriklanayotgan shaxs uzoqda bo‘lsa va tabriklayotgan kishining shaxsan o‘zi borishining imkoni bo‘lmasa, tahniyat u-n maxsus kishi (yoki kishilar) vakil qilib yuborilgan. Ularga qutlov va tabrikni, sochiq va tortiqlarni yetkazish vakolati yuklatilgan.

II. Tabrik, qutlov mazmunidagi xat. N. “M.”-da faqat bir maktub T. tarzida yozilgan. U Muzaffar Husayn mirzoga uning o‘g‘il farzand ko‘rgani munosabati b-n yo‘llangan. Maktub qutlov, tabrik so‘zlari hamda duo va ezgu tilaklarni o‘z ichiga oladi. Bular she’riy shaklda ham, nasriy satrlar vositasida ham ifoda etiladi. Maktub qaysi shahzodaning tug‘ilishi munosabati b-n yozilganligini xat boshidagi quyidagi baytdan bilib olish mumkin:

Dahrg‘a bersun mudom maqdamidin zeb-u zayn,
Shoh Muhammad Badi’ ibni Muzaffar Husayn.

Maktubdagi mana bu ruboiy ham uning mazmun-maqsadini yaqqol ifoda etadi:

Ham shohg‘a durri toji torak bo‘lsun,
Ham xalqg‘a zilli haq taborak bo‘lsun,
Andoqki Xurosonda muborak bo‘ldi,
Mashriqdin Mag‘ribg‘a muborak bo‘lsun.

Ad.: *Алишер Навоий. Муншаот. TAT. 10 жилдлик, 9-жилд. – T., 2011; Эргашев Қ. Ўзбек насрида иншо. – T., 2011.*

Q.E.

“TIYRA KULBAMG‘A KIRIB...” – N. ning “G‘.S.” devonidan o‘rin olgan g‘azali:

Tiyra kulbamg‘a kirib, jono, o‘lumdin ber najot,
Zulmat ichra Xizrg‘a ul nav’kim, obi hayot.

Soda ko‘nglum ichra la’lingning xayoli tushgali
Shishayedurkim, aning ichiga solmishlar nabot.

Orazing mehrida og‘zingdur gadolig‘ qilg‘anim,
Haq seni xurshid qilmish, zarraye bergil zakot.

To ko‘nguldin bosh chiqarmish
har taraf paykonlaring,
Qush bolasidek bo‘lubturkim, bo‘lur temur qanot.

Vasl ummidig‘a tilarmen umr, lekin voykim,
Sensizin ko‘rsam, tirikmen, o‘lturur meni uyot.

Istasangkim, ul quyosh chiqqach,
sanga qilg‘ay tulu’,
Ey ko‘ngul, g‘am seli yetkach,
tog‘dek tutqil sabot.

Ishqing o‘tin gar Navoiy desakim aylay raqam,
So‘zidin kuyar qalam, qurur qaro, erir davot.

Tasavvuf ta’limotidan bexabar o‘quvchi mazkur g‘azalning matla’sini o‘qiboq hayron bo‘ladi: “Ey jonon, zulmat ichidagi obi hayot Xizrga abadiy umr bag‘ishlagani kabi sen ham g‘amingdan qorong‘ilik qa’riga cho‘mgan kulbamga o‘lim xabari b-n tashrif buyurib, menga najot ber”. Xizr (a.s.)ning zulmatda yashirin obi hayot chashmasini topib, undan ichish b-n boqiy hayotga sazovor bo‘lgani-ku tushunarli. Lekin ma’shuqa tomonidan etadigan o‘limning oshiq u-n najot bo‘lishi qiziq.

Bu – tasavvufiy qarashlar b-n bog‘liq. Aytib o‘tilganidek, unga ko‘ra, inson azalda Alloh b-n birga, u b-n bir butun bo‘lgan. Keyin tug‘ilgan-u, Yaratuvchisidan ayru tushgan. Ya’ni olam va odamning yaratilishi b-n Xudo va banda bir-biridan ayrilgan. U endi bir umr yana o‘z Parvardigori b-n topishishga, avvalgidek yana birga bo‘lishga intiladi. Lekin tiriklikda buning iloji yo‘q: ilohiy mahbuba vasliga insonning faqat kamolga yetgan ruhi muyassar bo‘ladi. So‘fiyona adabiyotda oshiqning o‘ziga o‘lim tilashining, shahid bo‘lishga intilishining, “Jonimni tezroq ol!”, – deb ma’shuqasiga iltijo qilishining boisi shu. Zero, maqsad diydor ekan, qancha tez unga yetishsa, shuncha yaxshi. N. “M.N.” asarida Mavlono Sadr Kotib degan shoirning quyidagi baytini keltiradi:

Hargiz dili moro ba g‘ame shod nakardi,
Kushti digaronrovu maro yod nakardi.

Tarj.: Mening ko‘nglimni sira g‘aming b-n shod etmading, o‘zgalarni o‘ldirding, meni esa yod etmading.

Ma’lum bo‘ladiki, Xudoning jon olishi – uning yod etishi ekan! Shuning u-n ham Mashrab: “Oshiq kishiga o‘lmoq ayni muddao keldi”, – deydi. Visolning bundan bo‘lak yo‘li bo‘lmagach, na iloj, oshiq o‘limga ham ko‘nadi-da!

Soda ko‘nglum ichra la’lingning xayoli tushgali,
Shishayedurkim, aning ichiga solmishlar nabot.

Bu bayt nisbatan sodda xalqona tashbehdan iborat. Uni so‘zma-so‘z emas, balki mazmuniga ko‘ra sharhlasak, shunday ma’no kelib chiqadi: “Nabot solganda piyoladagi choy shirin bo‘lgani kabi ko‘ngliga ishq o‘ti tushgan kishining hayoti mazmunli bo‘ladi”. Yoki: “Nabot suvni shirin qilgani kabi muhabbat hayotga mazmun-mohiyat baxsh etadi”. Yana: “Suv qand bilan shirin, hayot muhabbat bilan”.

Orazing mehrida og‘zingdur gadolig‘ qilg‘anim,
Haq seni xurshid qilmish, zarraye bergil zakot.

Mazkur baytning mazmunini tushunish u-n og‘iz va zakot so‘zlari bildirgan ma’nolarni bilib olishimiz lozim. Og‘iz orqali so‘fiyona adabiyotda ilohiy kalomga, uning chiqish o‘rniga ishora qilinadi. Shunga muvofiq, og‘izning angishvonaday kichkinaligi, goho hatto ko‘rib bo‘lmas darajada ekanligi – ilohiy asrorni aql b-n anglab yetishning imkonsizligidan nishona. Zakot – islom shariatiga muvofiq boy, o‘ziga to‘q musulmonlarning mol-mulkidan faqir va qashshoqlar foydasiga har yili umumiy daromadning qirqdan bir ulushi miqdorida olinadigan soliq.

Sharq mumtoz she’riyatidagi “husn zakoti”, “la’l zakoti” kabi mashhur iboralar shundan kelib chiqqan, ya’ni, mol-mulki ko‘p badavlat kishi bechoralar foydasiga zakot bergandek, go‘zal mahbuba ham oshiqlarini tengsiz husnidan bahramand etishi – ularga hech bo‘lmasa, yuzini ko‘rsatishi kerakligini shoirlar yetakchi mavzulardan biri darajasiga ko‘tarib, badiiy timsolga aylantirganlar.

Endi baytni shunday talqin qilishimiz mumkin: “Yuzing ishqi ko‘ngilga tushgan kundan boshlab og‘zingning gadosiga aylandim. Chunki taqdirim shu og‘izdan chiqadigan so‘zga bog‘liq. Xudovan-

di karim seni quyosh kabi yuksaltiribdi, bu faqir foydasiga nuringdan bir zarrasini zakot sifatida bersang-chi? Boyning muruvvati tufayli kambag‘alning turmushi o‘nglanib ketgani kabi marhamating sababidan ko‘nglim murodi hosil bo‘lar edi”.

To ko‘nguldin bosh chiqarmish
har taraf paykonlaring,
Qush bolasidek bo‘lubturkim, bo‘lur temur qanot.

N. hamisha hayotiy hodisalar, narsalardan o‘z fikrini ifodalash, uni kuchaytirish u-n go‘zal va betakror tashbehlar hosil qiladi. Chunonchi, keltirilgan baytda oshiq yuragiga sanchilgan ma’shuqa o‘qlarining uni teshib tashqariga chiqishi qanotlari qotib, uchishga yaraydigan, ya’ni temirqanot bo‘lgan qush bolasining uchish maqsadida inidan chiqishiga o‘xshatilyapti. Bu b-n shoir yuragimning dardi shunchalar zo‘rki, unga sanchilgan o‘qdek qushga aylanib, ma’shuqa tomonga parvoz qilishi va uning oldida mening ishqim dostonini kuylashi mumkin, degan bir fikrni ham ifodalagani misralar qatidan sezilib turibdi.

Vasl ummidig‘a tilarmen umr, lekin voykim,
Sensizin ko‘rsam, tirikmen, o‘lturur meni uyot.

Bu yerda naqshbandiyaning “Xush dar dam” qoidasi o‘z aksini topgan. Uning ma’nosi, muxtasar qilib aytganda, fikr-u xayolni bir yerga to‘plab, yolg‘iz Allohga qaratish, bir nafas ham Alloh yodi va zikridan xoli bo‘lmaslik. Bu ta’limotga ko‘ra, inson qancha uzoq umr ko‘rsa, Allohning ibodatini, zikrini shuncha ko‘p qiladi, shunga imkoniyat yaratiladi. Bir nafas Parvardigor yodidan mosuvo bo‘lish esa, naqshbandiy u-n o‘lim b-n barobar. Shuning u-n ham shoir yozadiki: “Men uzoq umr tilar ekanman, buning boisi – sening vasling umidi. Lekin sensiz, ya’ni sening yodingsiz yashab yurganimdan voqif bo‘lsam, uyatdan o‘lar holatga yetaman”.

Istasangkim, ul quyosh chiqqach
sanga qilg‘ay tulu’,
Ey ko‘ngul, g‘am seli yetkach,
tog‘dek tutqil sabot.

Qiyomat kunida Alloh o‘z yo‘lida ranj-u mashaqqat chekib, qalbini poklagan, ruhini yuksaltirgan xos bandalariga jamolini ko‘rsatishga va’da bergan. Shoir shunga ishora qilib, aytadiki, mahsharda u husn quyoshi – Allohni ko‘rishni istasang, g‘am seli – bu dunyo ranj-u mashaqqatlariga tog‘dek sabr qil.

Ishqing o‘tin gar Navoiy desakim aylay raqam,
So‘zidin kuyar qalam, qurur qaro, erir davot.

Maz.: Navoiy ko‘nglidagi ishqing o‘tining shiddatini bayon etmoqchi bo‘lsa, uning alangasida qalam kuyadi, siyoh quriydi, davot esa eriydi.

Darhaqiqat, N. buyuk bir ishq sohibi edi. Bu maqomga erishish imkoni yo‘q, biz faqat uning naqadar ulug‘vor ekanligini anglab yetishni, tasavvur qilishni istaymiz.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ҳаққул И., Очилов Э. Ишқ ва ҳайрат олами. – Т., 2016.*

I.H.

“TELBA KO‘NGLUM, VAHKI, HAR SOAT BIROV SORI BORUR...” – N.ning yigitlik yillarida yozgan va birinchi marta “B.B.” devoniga kiritilgan g‘azallaridan biri. Ramali musammani mahzuf vaznida, 7 bayt.

Telba ko‘nglum, vahki, har soat birov sori borur,
Man’ qildim ersa bag‘rim og‘rig‘udek yolborur.

Qo‘ydum ersa kelturur munglug‘
boshimg‘a yuz balo,
Qo‘ymasam jong‘a zarar yetgudek o‘zidin borur.

Qo‘ymasam – bu, qo‘ysam – ul,
vah, bo‘lsa yuz jonim fido
Ul kishigakim, hazin jonimni andin qutqorur.
Aql vasvosini qo‘ysam avlo ulkim, men dog‘i
Boshim olib ketgamen har sorikim, ul boshqorur.
Soqiyo, bir nav’ men labtashna yo‘qkim og‘zima,
Har yaram og‘zig‘a quysang bir qadahni sipqorur.

Ikki yuzluk bo‘lmakim, bu bog‘ning ra’no guli
Gar qizorur bir yuzi, lekin yana bir sorg‘orur.

Kulda pinhon o‘t kibi topmas Navoiy ko‘nglini,
Har nechakim ishq kul qildi vujudin oxtorur.

Ma’lum darajada bir-biriga bog‘langan, bir-birini mazmunan to‘ldiruvchi baytlardan tashkil topgan bu g‘azal N.ning yakpora g‘azallaridan bo‘lib, bunda oshiq ishq savdosiga giriftor bo‘lgan o‘z qalbini doim nazoratda turgan sho‘x va tantiq, telba holatidagi bolaga o‘xshatadi. U bir nimani sevib qolgan bo‘lib, doim beixtiyor ravishda unga intiladi. Oshiq uni bundan qaytarmoqchi bo‘lib, tashbehlar beradi, tanbehlar beradi, oldiga o‘tqazib qo‘yadi. Lekin u ma’lum vaqtdan keyin yana unga odam chidab bo‘lmaydigan darajada shunday yalinadiki, yana qo‘yib yuborishga to‘g‘ri keladi (“Man” qildim ersa, bag‘rim og‘rig‘udek yolborur”).

Oshiq bu telba ko‘ngilni o‘z holiga qo‘yib yuborar ekan, u shunday noloyiq ishlarni qiladiki, bu oshiqning boshiga turli balolarni olib keladi. Uni o‘z holiga qo‘yib yubormasa, u o‘zini-o‘zi o‘ldirib qo‘yishi hech gap emas:

Qo‘ydum ersa, kelturur munglug‘
boshimg‘a yuz balo,
Qo‘ymasam, jong‘a zarar
yetgudek o‘zidin borur.

Bunda oshiq ota va ustoz o‘rnida uni yo‘lga solmoqchi bo‘lib, qancha harakat qilmasin, buning uddasidan chiqa olmaydi, boshi qotib, o‘zi undan qutulish yo‘lini qidirishga kelib qoladi:

Qo‘ymasam bu, qo‘ysam ul, vah, bo‘lsa yuz jonim fido
Ul kishigakim, hazin jonimni ondin qutqorur.

Mazkur g‘azalda N. jonlantirish usulidan mohirona foydalanib, ko‘ngul qiyofasida yosh va beg‘ubor oshiq obrazini dramatik va psixologik holatlar orqali g‘oyat yorqin va jonli gavdalantirib bera olgan. Ya’ni, bu o‘rinda shoir ishqni oshiq obrazi orqali emas, uning ko‘ngli obrazi orqali shartli va lirik she’riyatda maqbul badiiy usul orqali tasvirlagan.

Lekin N. ishqni, ko‘ngulning har qanday devonavor harakatlarini aslida zarracha bo‘lsa-da, yomonlamoqchi emas. Oshiq - ko‘ngulni zamonaning nobopligi shu ahvolga solgan. Oxir-oqibatda buni to‘g‘ri tushunib yetgan oshiq “aql vasvasasini” ortiq va haq deb bilib, o‘zi ham (“men dog‘i”) boshi oqqan tomonga, telbalar mamlakatiga ketishga qaror qiladi:

Aql vasvosini qo‘ysam avlo ulkim, men dog‘i –
Boshim olib ketgamen har sorikim, – ul boshqarur.

G‘azalning yakunlovchi qismida N. ikkiyuzlamachilikni, o‘tkinchi mayllarga berilmaslikni yoqlab, ra’no gulini misolga keltirib o‘zining quyidagi hikoya va tanbehlarga to‘la falsafiy-axloqiy baytini yaratadi:

Ikki yuzluk bo‘lmakim, bu bog‘ning ra’no guli
Gar qizorur bir yuzi, lekin yana bir sorg‘orur.

Mazkur g‘azalning originalligi yana shundaki, bunda shoir insonning negativ holatini tasvirlayotganday bo‘lib turib, bundan ijobiy xulosaga yo‘l topadi. G‘azalda shoir tasavvuri b-n hayot haqiqati bir-biriga uyg‘un holda namoyon bo‘lgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011.*

Ab.H.

“TELBARAB ITGAN KO‘NGUL YODIMG‘A KIRSA GOHLAR...” – N.ning yigitlik davrida yozilgan g‘azallaridan biri. 7 bayt. Ramali musammani mahzuf vaznida. Birinchi marta “B.B.” devoniga kiritilgan.

Telbarab itgan ko‘ngul yodimg‘a kelsa gohlar,
Yig‘lab el ko‘ngli buzulg‘udek chekarmen ohlar.

O‘tti xo‘blar oy kibi, yo‘qtur aroda ul quyosh,
Vahki, ul badmehrni ko‘rmon, o‘tadur mohlar.

Xo‘blar zulf-u zanaxdonig‘a bording, ey ko‘ngul,
Hozir o‘l, tundur qarong‘u, yo‘lda bordur chohlar.

Gar musavvir chizsa devor uzra ul gul xirmanin,
Jav-bajav mendin nishon bergusi bir-bir kohlar.

Ey ko‘ngul, Farhod ila Vomiq dog‘i Majnun qani?
Bo‘lmag‘il g‘ofilki, bir-bir bordilar hamrohlar.

To‘kti qon gulgun libosin kiygach ul xo‘blar shahi,
Qon to‘kar ermish qizil to‘n kiysa, beshak, shohlar.

Ey bahori husn, eshitsang gar Navoiy ohini
Kerak, albatta, xazon yelin sog‘insang gohlar.

G‘azal an’anaviy ishqiy mavzuda yozilgan bo‘lsa ham undagi obraz va iboralar, har bir bayt o‘zining originalligi, samimiyligi b-n kitobxon qalbini o‘ziga tortadi. G‘azaldagi “Telbarab itgan ko‘ngul” oshiqning ko‘ngli bo‘lib, u o‘zini batamom yoriga bag‘ishlagan, o‘zini unutgan. Oshiq o‘z ko‘nglini pok va musaffo boladek ko‘radi, uning baxtsiz ishq tufayli qiyin ahvolda qolganiga achinadi. Uni eslaganda, o‘zining ham ko‘ngli buzilib, beixtiyor yig‘lab yuboradi (“Yig‘lab el ko‘ngli buzulg‘udek chekarmen ohlar”). G‘azalda vaqt, makon tushunchasining kengligi b-n samimiy sevgi, sog‘inch tuyg‘ularining kengligi, cheksizligi bir-biriga ulanib ketganday. Oshiq uzoqdagi o‘z yorini goh sevib, erkalab, goh o‘pka-gina b-n esga oladi:

O‘tti xo‘blar oy kibi, yo‘qtur aroda ul quyosh,
Vahki, ul badmehrni ko‘rmon o‘todur mohlar.

Oshiq o‘z sevgilisini o‘ylab ko‘rmaydi. Goh uni ko‘rgisi kelib ko‘chaga chiqib o‘ltiradi. Uning oldidan ne-ne go‘zallar o‘tadi. Lekin uning mahbubasidan darak yo‘q. Bu ahvolga u qanday chidasin! Bu fikrni ifodalash u-n N. o‘z she’riy iqtidorini to‘la ishga solib, iyhom san’atidan mohirona foydalanadi. Bu baytning birinchi misrasida oshiq o‘z sevgilisini boshqa go‘zallarga taqqoslab, ularni oyga, ma’shuqasini quyoshga taqqoslasa, ikkinchi misrada sevgilisini quyosh so‘zining forsiy varianti – mehr (aniqrog‘i “badmehr”) deb ataydi, oy so‘zini esa forsiy “moh” so‘zi b-n almashtirib takrorlaydi. Xuddi shunday san’atni shoir keyingi baytda ham qo‘llagan:

Xo‘blar zulf-u zanaxdonig‘a bording, ey ko‘ngul,
Hozir ul-tundur qorong‘u, yo‘lda borur chohlar.

Birinchi misrada yorning zulfi va zanaxdoni (kulgichi, yuzidagi chuqurchasi) haqida gap borar ekan, ikkinchi misrada zulf qorong‘i tunga, zanaxdon esa yo‘ldagi o‘ydim-chuqurlarga taqqoslanadi.

G‘azalda “Ey ko‘ngul” iborasi ikki marta ishlatilgan bo‘lib, bunda jonlantirish yo‘li b-n butun borlig‘ini sevgilisiga bag‘ishlagan oshiq gavdalantirilgan. Beshinchi baytda ko‘ngulga shoir: “Ey ko‘ngul, Farhod ila Vomiq, dog‘i Majnun qani...” deb murojaat qilar ekan, bu ham shu fikrni tasdiqlaydi. Ya’ni, shoir ko‘ngulni ma’lum va mashhur oshiqlar bilan yonma-yon qo‘ymoqda, uning qismati ham o‘sha oshiqlarning qismati b-n bir ekanini ta’kidlamoqda. Shoir bundan keyingi baytda berahm mahbubaning qizil libos (“gulgun libos”) kiyishini jang kuni podshohlarning “qizil to‘n” kiyishiga qiyoslagan. Bu esa uning o‘z oshiqlariga nisbatan badtar g‘addorlik qilishiga ishora.

N. g‘azal maqta’sida ma’shuqani “Ey bahori husn” deb ta’riflasa, oshiq qiyofasidagi o‘zining ohlarini kuz pallasidagi sovuq shamollarga (“xazon yeli”) o‘xshatadi.

G‘azalda rassom (“musavvir”) obrazi bo‘lib, u agar devorga mening sevgilim rasmini chizadigan bo‘lsa (“Gar musavvir chizsa devor uzra ul gul xirmanin”), mening suratimni unga yonmayon chizishining hojati yo‘q, chunki devordagi har zaif somon parchasi mening ozg‘in vujudimni gavdalantirib turadi. (“Jav-bajav mendin nishon bergusi bir-bir kohlar”), – deydi shoir.

Garchi g‘azalda baytlar o‘zaro chambarchas bog‘lanmagan bo‘lsa ham, barcha baytlar umumiy insonparvarlik g‘oyalarni, insonning in-

songa muhabbati va sadoqatini ifodalaydi. Shu ma’noda mazkur g‘azalni N.ning kompozitsion jihatdan parokanda g‘azallar tipiga kiruvchi eng yaxshi she’ri sifatida baholash mumkin.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011.*

Ab.H.

TEMURIYLAR DAVLATI – Amir Temur (1336–1405) asos solgan markazlashgan davlat. T.D. deganda buyuk davlat arbobi va sarkarda Amir Temur sulolasi hukmronlik qilgan tarixiy davrni va uning tasarrufida bo‘lgan mintaqalarni tasavvur etamiz. T.D. zamon va makon chegaralarini belgilab olish muhim metodologik ahamiyatga molikdir. Umuman olganda, T.D. salkam 500 yil Amir Temur va uning vorislari tomonidan boshqarilib, asosan, ikki tarixiy bosqichni o‘z ichiga oladi. Uning birinchi bosiqichi Amir Temur Movarounnahr hududini birlashtirib, Samarqand taxtiga o‘tirgan 1370-y.dan boshlanib, 27 ta davlat boshqaruvini qo‘lga olib, 1507-y.da Shayboniyxon tomonidan Hirotning egallanishini qamrab oladi. Ikkinchi bosqich esa Amir Temurning uchinchi o‘g‘li Mironshohning chevarasi Zahiriddin Muhammad Bobur 1508-y. Afg‘onistonda mustaqil davlat tuzib, u yerdan 1526-y.da Shimoliy Hindistonda Boburiylar imperiyasi asos solgandan boshlab, Bahodirshoh II ning 1858-y.da ingliz mustamlakachilari tomonidan qatl etilishiga qadar bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. T.D.ning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy eng rivojlangan davri Amir Temur hukmronligi yillariga to‘g‘ri keladi. Vatanimiz fani, madaniyati, adabiyot va san’ati yanada yuksaldi. Atoqli olimlar, shoirlar yetishib chiqdilar. N. ham temuriylar davri mevasidir.

N. o‘z asarlarida T.D. asoschisi Amir Temurni va Shohruh mirzo, Ulug‘bek mirzo, Husayn Boyqarolarni hurmat b-n tilga oladi. “M.N.” asarining yettinchi majlisida Temur Ko‘ragon hamda 21 nafar temuriylarni adabiyot va san’atga munosabati masalasida bayon qiladi. “X.” dostonlarida Husayn Boyqaro va uning o‘g‘illariga alohida fasllar bag‘ishlaydi, hatto birini biriga namuna ko‘rsatish vositasida ezgulikka, adolatga, xayrli ishlarga chorlaydi. “M.” asarida Badiuzzamonga Husayn Boyqaroning Amir Temur xotirasiga bo‘lgan hurmatini eslatib, uni shoh otasini qadrlashga chaqirsa, “F.Sh.” dostonida Shohg‘arib mirzoga bob ajratib, uni fiqh, hadis, tafsir, tib, tarix kabi ilmlarni puxta egallashga undab, misol tariqasida Ulug‘bek mirzoning ilm-fandagi xizmatlarini *“Temurxon naslidin sulton Ulug‘bek, Ki, olam ko‘rmadi sulton aningdek”* deb eslatadi, olqishlaydiki, bunday go‘zal satrlarni N. T.D. u-n ham bitgandek edi. N. T.D.dagi har bir xayrli nuqtani goh badiiy, goh tarixiy, goh nazariy aspektda mahorat b-n yoritsa, halokatga, tanazzulga olib boruvchi holatlardan, xavf-xatarlardan temuriylarni kuyunchaklik b-n ogoh ham etadi. “S.S.” dostonida tush ramzi yordamida Bahrom tilidan shoh va sulola u-n ogohlik, hushyorlikning fazilati haqida ham yozgan. Bunday holatlarga ko‘plab misollar keltirishimiz mumkin.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

B.R.

“TEMURIYLAR DAVRIDA XAMSANAVISLIK” – adabiyotshunos S.Tohirov tomonidan OT-F1-138 “Temuriylar davrida yaratilgan

“Xamsa”larning komparativistik tadqiqi” loyihasi doirasida nashr etilgan monografiya. Kitobning “Mustahkam poydevor” nomli bobida Firdavsiyning “Shohnoma”si epik dostonchilikni boshlab bergan ilk doston sifatida talqin etilsa, Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviy dostonlari keng tahlil qilingan. Temuriylar davri barcha jabhalar qatori katta ijodiy raqobat, mahorat maydoni bo‘lgan an’anaviy xamsachilik rivojiga ham zamin yaratgani “Yuksak tamaddun va ma’rifiy yuksalish” bobida ko‘rib o‘tiladi. Jumladan, Jamoliy, Kotibiy Turshiziy, Abdulloh Hotifiy, Badriddin Hiloliy, Shahobiddin Jomiy (N. tavsiyasi bilan “Layli va Majnun”, “Xusrav va Shirin” dostonlarini yozgan) dostonlari tavsiflanadi. Ashraf Marog‘iyning “Xamsa”si, Jomiyning “Haft avrang” dostonlar turkumi va turkiy xamsachilikning ilk qadamlari adabiy-ijtimoiy muhit misolida tekshiriladi, boblar maxsus jadvalda berilgan. “Dahoning buyuk kashfiyoti” bobida N. “X.”si har biri alohida faslda yoritiladi. N. “X.”sining yaratilish tarixi, ijodiy ta’sirlanish, an’ana va o‘ziga xoslik yoritiladi. Har besh dostonning asosiy mohiyatida yotuvchi bosh g‘oya – ma’rifat, ishq, so‘z, adolatli hukmdor kabi mavzular ijodkor konsepsiyasini belgilovchi bosh xususiyat sifatida sharhlanadi. “S.S.” dostonini turkum syujet qolipida Sharq va dunyo adabiyoti kontekstida qiyosiy o‘rganilgan. Har bir hikoyaning bosh qahramon b-n bog‘lanuvchi asos zanjiri ko‘rsatilgan. “Buyuklar ma’rifatidan bahra olib” nomli bobda Abdibek Sheroziy “X.”si va keyingi davrda forsiydagi Tabriziy Gunobodiy, Habibiy, Sharafiddin Hasan Shifoyi, Urfiy Sheroziy kabi 15 dan oshiq, turkiy tilda Xoja, G‘aribiy, Nishotiy, Ochildimurod Miriy kabi adiblarning “X.” yo‘nalishidagi dostonlari haqida ma’lumot beriladi. Umuman, monografiya xamsachilik an’anasining forsiy va turkiy tildagi tadrijiy bosqichlari, N. “X.”sining o‘ziga xosligi haqida ma’lumot beruvchi muhim manbadir.

Ad.: *Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Тоҳиров С. Темурийлар даврида хамсанавислик. – Т., 2021.*

O.T., S.O‘.

“TEMURIYLAR DAVRI MUNSHAOTNAVISLIGIDA MATN TUZISH AN’ANASI” – U.Mahmudov tomonidan shu mavzudagi dissertatsiya asosida tayyorlangan monografiya. Kitobda temuriylar davrida yaratilgan fors-tojik va turkiy tildagi munshaotchilik an’anasi yoritilgan. Tadqiqot obyekti qilib Hirot adabiy muhiti vakili Abdulloh Marvoridning forsiyda bitilgan “Munshaoti Abdulloh Marvorid” to‘plamidagi maktublar olingan bo‘lib, uch bobdan iborat. Jumladan, “Munshaotlar genezisi va temuriylar davri munshaotnavisligi” nomli ilk bobi munshaotchilikning yuzaga kelishi, yuqori tabaqa ziyolilar o‘rtasida maktub bitishning ommalashgani, bu maktublar o‘rta asr klassik nasr uslubini o‘zida ifoda etgani, davr muammolari, munosabatlar, ijtimoiy-siyosiy vaziyatlar maktublarda aks etgani, ularda o‘zaro hurmat, muomalaning saviya jihatidan baland bo‘lgani, natijada bu maktublar to‘planib, munshaotchilikka asos bo‘lgani yoritiladi. Xattotlik maktablarining yuzaga kelishi, maktubni san’at darajasida ko‘chirish ham maktub bitish an’anasiga ta’sir ko‘rsatgan. 650 ta maktubdan iborat “Faroyidi G‘iyosiy”, Xoja Imomiddin Mahmud Govon tomonidan yozilgan “Riyoz ul-insho yoki Manozir ul-insho”, Sharafiddin Ali Yazdiyning “Munshaoti Sharafiddin Ali Yazdiy”, Muhammad bin Ali bin Jamol ul-islomning “Humoyunnoma”, Amir Husayn Qozi bin Muiniddin Husayniy Maybudiyning “Munshaoti Maybudiy”, Ahmadi Doyining turkiy tildagi “Tarassul”, Yahyo bin Muhammad alkotibning “Manohij ul-insho”, Shayx Mahmud Adhamning “Gulshani insho”, Usmoniylar davlati devon kotibi Masihiyning “Guli sadbarg” va N.ning “M.” asarlari haqida ma’lumot beriladi. “Abdulloh Marvorid va uning temuriylar davri madaniy hayotida tutgan o‘rni” nomli ikkinchi bobda Abdulloh Marvoridning otasi Xoja Shamsiddin Kirmondan Qoraquyunlilar istibdo-

didan qochib Hirotga Sulton Abu Said huzuriga kelgani, bir muddat Samarqandda yashab, Hirotga qaytishi, faqirlikni ixtiyor qilgani va Xoqon G‘iyosiddin Mansur uni Xoja Abdulloh Ansoriy ziyoratgohi va vaqfining shayxi va mutavvaliysi etib tayinlagani, N. ning Xoja Shamsiddin Muhammadga atab yozgan marsiyasi Zayniddin Vosifiyning “Badoye’ ul-vaqoye’” asariga kiritilgani aytiladi. N. marsiyada undan ikki dur – ikki o‘g‘li Abdulloh Marvorid va Nizomiddin Yahyo Marvorid qolganini yozadi. Yahyo Marvorid keyinchalik (hijriy 918) Amir Najmi Soniy va Z.M. Boburning Hirotga lashkar tortishi oqibatida vafot etadi. Abdulloh Marvorid otasining orqasidan saroyga kirib keladi va Husayn Boyqaro saroyida xizmat qiladi. U shoir, yetuk xattot, musiqashunos, saroyda qonun sozini chalishda tengi yo‘q bo‘lgan. Zayniddin Vosifiy “Badoye’ ul-vaqoye”da uning N.ning *“Din ofati ul mag‘bachayi mahiliqodur, mayxorau bebok, / Kim ishqidin oning vatanim deydi fanodir, sarmastu yoqom chok”* matla’li mutazodiga kuy bastalagani, bu kuyni odamlar yoqalarini yirtib tinglagani, N. g‘azallariga ilk kuy bastalagan sozandalar Xoja Yusuf Burhon va Abdulloh Marvorid ekanligi aytiladi. U N.dan keyin uning o‘rnini egallaydi, sultonning muhrdoriga aylanadi.

3-bobda “Munshaoti Abdulloh Marvorid”-ning matniy tadqiqi amalga oshirilgan. Kitobning qo‘lyozma nusxalari, maktublar tarkibi yoritiladi. Ahamiyatlisi, to‘plamda N.ning hajga oid farmoni ham mavjud. “Farmonning davomida Amir Alisherning hajga borish istagi xususidagi bayon keltirilib, sultonning vaziyat taqozosi bilan (bu paytda Iroq va Shom hududi nisbatan notinch bo‘lgan) safarga bormaslik maslagi beriladi” (101-102). N.ning Samarqanddan Hirotga qaytishi, Sulton uni kutib olishda bayt o‘qigani, N.ning martabasi, faoliyati haqida so‘z yuritilib, farmon so‘nggida vaziyat o‘nglanib, N.ning hajga borish istagi qondirilgani, qo‘shib berilgan odamlar xavfli hududlardan ehtiyot qilib olib o‘tishlari lozimligi haqidagi ma’lumotlar keltiriladi. Kitobga forsiy tildan tarjima qilinib ilova qilingan maktublar sirasidan N.ning Abdulloh Marvorid va Xoja Afzalga yozgan pandnomasi, N. ning ustozi Jomiyga yozgan she’riy maktubi, N. ning Sulton Husayn Boyqaroga maktubi ham o‘rin olgan. Umuman, monografiya temuriylar davrida adabiyot, san’at, madaniy hayot, N. hayoti va faoliyati haqida boy ma’lumotlar berishi b-n qimmatli manba hisoblanadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Муншаот. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Маҳмудов У. Темурийлар даври муншаотнавислигида матн тузиш анъанаси. – Т., 2022.*

Q.E., O.T., S.O‘.

TEMURTOSH – “X.” dostonlaridagi qahramonlardan birining nomi. Aniqrog‘i, “S.I.” dostonida Doroning xiroj to‘lashdan bosh tortgan Iskandarga qarshi yurishga hozirlik ko‘rib, o‘ziga qaram yurt-o‘lkalardan qo‘shin to‘plash lavhasida “Dasht elidin” askarlar olib kelgan lashkarboshi.

Hamul Misrdin Varqa-u Boshdek,
Dog‘i Dasht elidin Temurtoshdek.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

M.A.

“TENGRI XALQ ETMISH MENI GO‘-YO...” – “B.V.” devonidan o‘rin olgan g‘azal:

Ey ko‘ngul, bir nav’ o‘lubmen ahli davrondin malul,
Kim erurmen kimki andin yaxshi yo‘q, andin malul.

Hajr agar budur, netay men jonni, jon netsun meni
Kim, erur har lahza mendin jon-u men jondin malul.

Tengri xalq etmish meni go‘yo malolat chekkali,
Kim, dame yo‘qkim, emasmen xalqi nodondin malul.

Necha dinim uzra titray dilrabolar ko‘yida,
Ey, musulmonlar, bo‘lubmen kofiristondin malul.

Istasang maqsad, qadam qo‘y, ta’n toshidin ne bok,
Ka’ba topti, bo‘lmag‘on xori mug‘ilondin malul.

Ey ko‘ngul, fikringni qilkim, do‘st-u dushmanlar yuzun
Ko‘rmas erdi, bo‘lmasa sen zori hayrondin malul.

Ey mug‘anniy, tut “Iroq” ohangi-yu ko‘rguz “Hijoz”
Kim, Navoiy xotiri bo‘lmish “Xuroson”din malul.

Mashhur mutasavvif shoir Yunus Emroning she’rlariga sharh bitganlardan biri shunday deydi: “Bu faqir-u haqir, do‘stlar iltimosiga ko‘ra Yunus Emro hazratlarining to‘qqiz she’rini sharh-u bayon etishga kirishib, sakkiz oy mobaynida qog‘-ozga ko‘milib, parishon yashadim. Lekin “Qilingan ish do‘stlar talabiga muvofiq bo‘ldimi yoki yo‘qmi?” – degan bir ishtiboh bor edi menda. Bir kecha Yunus Emro hazratlarini tush ko‘rdim. Bu faqirga iltifot ko‘rsatib dedilar: “Mening ul so‘zlarimga yozgan sharh va aytgan ma’niyi latifni fuqaro va toliblardan darig‘ tutmag‘ilki, bir manfaat ko‘rsinlar”.

Albatta, zahmat chekib, uzoq izlanish va bilim b-n yozilgan sharh yoki talqin befoyda bo‘lmaydi. Lekin mumtoz she’riyatimiz namunalarini, xususan, irfoniy mohiyatdagi she’rlarni sharhlash baribir juda qiyin. Chunki ularda fikr va ohang ham, timsol va tasvir ham ruh, hol va kayfiyatga bo‘ysundirilgan.

Shorih yoki talqinchi she’r mazmunini eng avvalo hol va kayfiyat tili b-n o‘qib, ruhan mushohada eta olmasa, o‘quvchini ishontirib ham, ergashtirib ham bilmaydi. Ehtimol, ergashishning keragi yo‘qdir. Ammo qiziqish zarur. Ana shu qiziqishdan she’rga yangicha bir qarash, munosabat, u yo bu jihatni chuqurlashtirish mayli tug‘ilishi mumkin.

Yaqinda menga “Domla, o‘tmish shoirlarimiz yig‘i haqida nega buncha ko‘p yozishgan? Qaysi shoirning she’rini o‘qimang, albatta, u yo “yig‘ladim” yo “yig‘larman” deydi. Yig‘ida ham bir me’yor bo‘lishi kerakmi, yo‘qmi?”, deb savol berdi. Bu – kulgi va shodlikka o‘chlikdan emas, mohiyatni anglash istagidan tug‘ilgan savol bo‘lganligi u-n men masalani tarixan, ya’ni din va tasavvuf b-n bog‘liqlikda izohlashga harakat qildim.

Kulgidan kulgining, shodlikdan shodlikning farqi bo‘lganidek, alamdan alamni, yig‘idan yig‘ining ham farqi bor. Biz, albatta, buni farqlashimiz va farqlarini puxta anglashimiz lozim. Ibrohim Haqqiy yozadi: “Ko‘z yoshining maqbul va manzuri ishq tufayli sel bo‘lib oqqanidir. Dunyoviy va nafsoniy niyatlar uchun to‘kilgan ko‘z yoshining Alloh oldida hech qanday qiymati yo‘qdir... Avom bilan xavosning yig‘isi orasida ko‘p farq bordir. Zero, har kimning yig‘lashi ilm va tushunchasiga ko‘ra... Xullas, yig‘lashni ayblab va yig‘laganni rad qilgan jaholatga taslim bo‘lib, xavosning holini avomga o‘xshatgan bo‘ladi”. Darvoqe, mumtoz she’riyatimiz markazida turgan inson, u oshiq yoki orif bo‘ladimi, darvesh yoki rind bo‘ladimi, bundan qat’iy nazar, hech qachon moddiy va nafsoniy orzu-umid va g‘arazlar u-n mahzunlashmagan, g‘ussa chekmagan, ko‘z yosh to‘kishni tasavvur ham qilmagan xos kishilar vakilidir. N. she’riyatini o‘qiganda masalaning shu jihatiga ham alohida e’tibor qaratishimiz, ulug‘ shoir tasvirlaridagi nihoyatda oliy va samoviy holat yoki tuyg‘ularni yerga qorishtirishdan saqlanmog‘imiz zarur. Bu dunyoda kimda malul bo‘lmaydi deysiz? Kim qayg‘u tortmaydi. Kim g‘amgin va xafa bo‘lmaydi? Biroq N.dagi mana bu malullik tamoman o‘zgadirki, shoir uni dard, hasrat va sir o‘laroq ko‘ngilga izhor aylagan:

Ey ko‘ngul, bir nav’ o‘lubmen
ahli davrondin malul,
Kim, erurmen kimki andin yaxshi yo‘q,
andin malul.

Bu baytda malul – qayg‘u va hasratda yonishning sababi, uning sifat va darajasi (“bir nav’”) va chegarasi (yaxshilarning eng yaxshisidan ham malol etish) aniq ifodalangan. Ammo o‘sha “bir nav’”ning mazmun– mohiyati nimadan iborat, u qanday iztirob va qiynoqlarga ishorat qiladi? Buni to‘g‘ridan to‘g‘ri tavsiflash qiyin. Zero, u ahli davron fe’l-atvori va ahli davronga xolis munosabatdan tug‘ilgan nadomatdir. Donishmandlarga ko‘ra, dunyo dunyo bo‘lganligi u-n emas, mol-mulki,

lazzat va shodliklari b-n odamlarni o‘ziga tobe qilish u-n yaralgandir. Shu bois ishqqa, zavq va ma’rifatga doir bo‘lmagan so‘zlarni tasavvuf ahli “dunyo kalomi”, deb bilishgan va bunday so‘zlarni gapirmaslik, imkon qadar tinglamaslikka harakat qilganlar. Shu ma’noda ulug‘ shoir, mutasavvif yoki allomalarning diliga ranj yetkazishda ahli dunyo b-n ahli davron deyarli tengdir.

Ma’lumki, ruh – jonning asli nurdir. Haq qudrati bo‘lmish ushbu qudsiy qudrat Allohning amri b-n vujudga kirgan. Lekin jon tanda boqiy qolmaydi. U ma’lum bir muddatdagi sayohatdan so‘ng asl manziliga qaytadi. Eng katta hijron ana shu oraliqdagi ayriliqdir. Haqiqiy oshiqlar ishqni – jon, jonni – ishq deb bilganliklari bois o‘limni faqat vujudga aloqador hisoblaganlar. Bu haqda Yunus Emro:

Tan foniydir jon o‘lmas,
chun ketsa ortga qaytmas,
O‘lsa agar tan o‘lur, jonlar o‘lguvchi emas, –

deydi. N. “hajr agar budur” deya jon va “men”,”-men” va jon orasidagi ozurdalik “mojaro”sidan xabar berganda, hajr kalimasining diniy– tasavvufiy mazmuniga urg‘u bergan:

Hajr agar budur, netay men jonni, jon netsun meni
Kim erur har lahza mendin jon-u men jondin malul.

Bugungi o‘quvchida “Jon bilan talashib, jondan bezib shunday ahvolda yashashning nimasi ibratli?” – degan savol tug‘ilishi mumkin. Agar oshiq xalqi jonini Azroilga emas, Allohga taslim etadi, xuddi ko‘ngil singari jon ham ma’shuq hayronidur, haqiqiy ishq – bu jon zavqi va fidoyiligi, degan qarash hisobga olinsa, shoir ko‘zda tutgan ichki maqsad o‘z-o‘zidan bir qadar ravshanlashadi. Keyingi baytdagi “xalqi nodon” birinchi misradagi “ahli davron”ga go‘yo izohdir:

Tengri xalq etmish meni go‘yo malolat chekkali,
Kim dame yo‘qkim, emasmen
xalqi nodondin malul.

Insondagi har qanday norozilik va sarkashlikning ham intihosi bor. Shunday intiho “dargoh”laridan biri sabr bo‘lsa, ikkinchisi ko‘nikish. Ko‘nikishning ham o‘ziga yarasha qiyinchiliklari va yomon jihatlari bo‘lsa– da, kishini aldanish, subutsizlik va yaltoqlanishdan muhofaza etadi. Inson o‘z ahvoliga, zohirdan yetadigan balo va ofatlarga sokin nigoh b-n boqadigan bo‘ladi. N. “Tangri meni malolat chekmoq uchun odam qilib yaratdi”, – degan qarorga kelguncha avomlik b-n ham, nodonlik b-n ham, jaholat va zolimlik b-n ham ko‘p yuzma– yuz kelgan. Va biror bir dam osudalik topmagach, g‘ayriixtiyoriy ravishda “Tengri xalq etmish meni...”, degan xulosaga to‘xtalgan.

Dunyo bir sinov maydoni. Bunda hamma narsa sinaladi va sinovdan o‘tkaziladi. Jumladan, ishq va e’tiqod ham. Ma’lumki, mutasavviflar sevgini rasmiy va umumiy dindan farqlanuvchi bir din – din ul-hubb deb bilganlar.

N. ham bir qancha she’rlarida din so‘zini shu ma’noda tatbiq qilgan. Oshiqning “dilrabolar ko‘yida” din uzra titrashi, aslida ishq uzra titrashini ifodalaydi. Musulmonlarga murojaat esa din ul-hubb – sevgi dinining sir-asrorlari b-n hisoblashmaydigan zohirbinlarga qaratilgan:

Necha dinim uzra titray dilrabolar ko‘yida,
Ey, musulmonlar, bo‘lubmen kofiristondin malul.

Bu fikr navbatdagi baytda yanada chuqurlashtirilgan. Chunonchi: Ko‘zlangan oliy maqsadga yetmoq istasang, ta’na toshlariga ahamiyat berma. “Xori mug‘ilon”dan malul bo‘lmagan Ka’bani topmoqqa ham qodirdir, deyiladi unda:

Istasang maqsad, qadam qo‘y, ta’n toshidin ne bok,
Ka’ba topti, bo‘lmag‘on xori mug‘ilondin malul.

“Mug‘ilon” – mug‘lar maskani. Mug‘ – otashparast demak. Tasavvufda sodiq murid, oshiq mazmunini aks ettiradi. Demak, ilohiy ishq yo‘lida din-u mazhab degan gap – nisbiy gap, demoqchi shoir.

Ilohiy ishqda ham, majoziy ishqda ham ko‘ngulning imkoni va mavqeyi yuqoridir. N.ning yana bir karra ko‘ngilga murojaat etib:

Ey ko‘ngul, fikringni qilkim,
do‘st-u dushmanlar yuzun,
Ko‘rmas erdi, bo‘lmasa senzori hayrondin malul,–

deyishi bejiz emas.

N.ning ilohiy ishq haqida bitilgan baytlariga xos bir fazilat bor: ularni o‘qirkansiz, hech qachon Haqni xalqdan, xalqni Haqdan ayru tasavvur eta olmaysiz. Inson va muhit, inson kamoli va abadiyat sirlari haqida yangi–yangi mushohadalarga imkon topasiz. G‘azal maqta’sida ham shoir go‘yo “Iroq” va “Hijoz” kuylarini tinglab, ko‘ngilga tasalli topish istagini bildirsa-da, oxirgi misrani o‘qib uning Xuroson muhitiga munosabatini oson anglab olasiz:

Ey mug‘anniy, tut “Iroq” ohangi-yu
ko‘rguz “Hijoz”
Kim, Navoiy xotiri bo‘lmish “Xuroson”din malul.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011.*

I.H.

“TENGRI XONIN...” – N.ning “N.Sh.” devonidan o‘rin olgan qit’asi:

Tengri xonin ochuq aqida qilib,
Xalqdin ro‘ziy istagan gumroh.
O‘yladurkim tengiz qirog‘ingda,
Ro‘za ochmoqqa kimsa qozg‘ay choh.

Rivoyat qilinishicha, Muso (a.s.) payg‘ambar Fir’avn qavmidan qochib, yolg‘izlik, bechoralik va ochlikdan toliqqanda: “Parvardigor, yolg‘izman, xastaman, bechoraman”, – deya zorlanganida unga g‘oyibdan shunday javob bo‘lgan: “Ey Muso, mendek do‘sti bo‘lmagan yolg‘izdir, mendek tabibi bo‘lmagan odam xastadir, men bilan aloqasini uzgan banda bechoradir”.

O‘rta asr odamlarini Xudoni eng sodiq do‘st, har qanday dardlariga darmon beruvchi tabib, barcha chorasizliklardan xalos etguvchi oliy qudrat deb bilganliklari u-n ayblash, albatta, gumrohlik bo‘lurdi. Ularning dunyoqarashida Xudo qanday mavqeni egallagan bo‘lsa, uni biz o‘shanday tarzda sharhlashimiz kerak. “Xudo tish beribdimi, rizqini ham beradi. Uning dasturxoni shoh-u gado uchun ochiq”, – deyishgan ajdodlarimiz. Va nasiba ulashishda Xudoning saxovati ulug‘ligiga ishonishgan. Qit’ada shunday nuqtayi nazardagi odamlarning tanqidiy munosabatlari asos etib olingan. Bular Tangri dasturxonining ochiqligiga ishonuvchilardir. Shoir shularning nomidan ikkinchi bir toifa kimsalarning vakillarini fosh etgan. Xo‘sh, ular kimlar? E’tiqodsiz va munofiqlar. Ularning ikkiyuzlamachiligi shundaki, zohiran, ya’ni tashqi ko‘rinishdan “Tengri xoni”ning yoziqligiga gumon bildirishmaydi-yu, ichdan esa xalqdan rizq-u nasiba tilashadi. Bu – ularning g‘ofilligi. Shuning u-n ham rizq-ro‘zini xalqdan tama etgan riyokorlar namoyondasini hazrat N. gumroh deb ataydi. Va uni dengiz qirg‘og‘ida turgan bo‘lsa-da, chuqur qazib, suv chiqarib ro‘zasini ochmoqni xohlagan dovdirga o‘xshatadi.

Qit’ada ifodalangan ma’noning ikki jihati bugungi o‘quvchi u-n juda e’tiborli. Birinchisi, o‘z qorni va manfaatini ko‘zlab, xalqdan tama qilmaslik; ikkinchisi, e’tiqodda subutsiz bo‘lmaslik.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Ҳаққул И. Касби камол ўзни танишдир. – Т., 2021.*

I.H.

“TILINGNI ASRAG‘IL...” – N. qit’asi:

Navoiy, tiling asrag‘il zinhor,
Desangkim, emay dahr ishidin fusus.

Nazar qilki, o‘q og‘zi tilsiz uchun,
Qilurlar tojvarlar bila dastbo‘s.

Necha tojvarlar kesarlar boshin,
Chu hangomsiz nag‘ma tortar xurus.

Qit’aning birinchi ikki qatorida: “Dunyo ishlaridan afsusga botmayin desang tilingga ehtiyot bo‘l, uni asragil”, deyilgan. Shoirning o‘z-o‘ziga murojaati va o‘zidan talabi barcha o‘quvchiga tegishli.

Bobomizning asl muddaosi – tilni asrashga chaqiriqdir. Lekin buni kimdir anglaydi, kimdir esa yo‘q. N. shuni inobatga olib, qit’alarida sevib ishlatgan tamsil san’ati, ya’ni dalil keltirish usuliga suyanadilar.

Nazar qilki, o‘q og‘zi tilsiz uchun,
Qilur tojvarlar bila dastbus.

Demak, bu – birinchi dalil. Chunonchi, nazar sol, o‘q og‘zi (yoy o‘qi e’tiborga olinayotir) tilsiz bo‘lganligi u-n toj egalari shohlar b-n qo‘l o‘pishadi. O‘qning tilsizligini namuna qilib, hazrat N. odamlarga qarata: “Siz ham butkul gung bo‘ling, shunda tojdorlar ardog‘i va saxovatiga erishasiz”, demoqchimilar? Yo‘q, albatta. Bayt-dagi fikr mazmunini aniq bilish va to‘g‘ri xulosa chiqarish u-n o‘tmishda yaratilgan afsona, mifologik qarashlarga murojaat qilish lozim. Qadimiy turklarning tasavvurlariga ko‘ra yoy va o‘q Xudo tomonidan yaratilgan. Shuning u-n turklarda yoy hukmronlik, mustaqillikni, o‘q esa tobelikni bildirgan. Mabodo bir qabila ikkinchi qabila boshlig‘iga o‘q yuborsa, u ikki ma’noda qabul qilingan. Biri – hurmat. Ikkinchisi – qaramlik. Eng qadim Xitoy manbalarida turklarda har qaysi qabilaning maxsus o‘qi bo‘lganligi yozilgan emish. N. o‘qning “tojvarlar bila dastbus” qilishini so‘zlaganlarida ana shu nuqtayi nazarlarga asoslanganlar. Endi ikkinchi dalil:

Necha tojvarlar kesarlar boshin,
Chuhangomsiz nag‘ma tortar xurus.

Xo‘rozning bemahalda qichqirishi hanuzgacha xosiyatsiz hodisa sanaladi. Nega? Bu ham afsonaviy voqea bilan aloqador. Olis asrlarda Kayumars degan podshoh bo‘lgan ekan. U adolatli, ko‘p joylarni obod etgan emish. Kayumarsning Pushang otli o‘g‘lini Damovand tog‘ida devlar o‘ldirishadi. Bundan bir qush ogoh bo‘lib, qattiq nola qila boshlaydi. Shoh shu qush “yo‘lboshchiligida” o‘g‘lining jasadini topadi. Kayumarsning boshqa farzandlari ham bo‘ladi, ulardan birini yurtga boshliq tayinlab, o‘zi devlarni o‘ldirishga otlanadi. Kayumars yo‘lda ketayotib, bir oq xo‘rozni uchratadi. U yo‘l boshida turib qichqirmoqda, sal olisroqqa bir tovuqni ilon o‘rab olgan. Xo‘roz qichqiribgina qolmasdan, jon-jahdi b-n ilonga tashlanar ham edi. Bu holat Kayumarsga xush keladi va: “Agar xo‘roz o‘z juftini qutqarish uchun kurashayotgan ekan, demak bu jonivorning ham fe’li insonga o‘xshash”, deydi. U ilonning boshini yanchib, xo‘roz b-n makiyonni ozod qiladi. Ularni o‘z o‘g‘illariga berib, asrab-avaylashni buyuradi. Shundan boshlab, elda tovuq saqlash rasmga aylanadi. Chunki ular bor xonadonlarga devlar yo‘lamas emish. Xo‘rozning chaqirishi esa yaxshilik belgisi. Unda N. nega bemahal qichqirgan xo‘rozning boshi kesilishi to‘g‘risida eslatayotir? Bu hodisa ham Kayumars taqdiriga bog‘langan. Bir kuni o‘sha oq xo‘roz kutilmaganda kechki paytda qichqirib qoladi. Odamlar buning sirini bilolmay hayratlanishadi. So‘ng ma’lum bo‘ladiki, Kayumars o‘lgan ekan. Shuning u-n xo‘roz kechki payt qichqirdimi – bu yomonlik xabari, unday xo‘rozni darhol so‘yish lozim, degan fikr aqida shaklida asrlar mobaynida yashab kelgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011.*

I.H.

TILSIMLI KO‘ZGU. “S.S.” dostonidagi to‘rtinchi iqlimdan kelgan musofir hikoyatida hind elining adolatli va saxovatli hukmdori Jo‘naga uning “g‘arib mehmoni” tuhfa etgan bu ko‘zguga chin va yolg‘on so‘zlaguvchini farqlash hikmati tilsim etilgan bo‘lib, ko‘zguda chin

so‘zlaguvchining aksi oq, yolg‘onchining esa yuzi qaro ko‘rinar edi.

Tuhfa kelturmish edi ko‘zgu,
Kim, ani tutsa har kishi o‘tru.

Chin desa aksida safo erdi,
Desa yolg‘on yuzi qaro erdi.

Ko‘p kishi qildi ozmoyish anga,
Aytg‘ondek edi namoyish anga.

Hikoyat davomida odil shoh bu ko‘zgudan haqiqatni aniqlash yo‘lida o‘rinli foydalanadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011.*

A.A.

TILSHUNOSLIK VA NAVOIY – O‘zbek adabiy tilining taraqqiyotida XV asrning ikkinchi yarmi nihoyat muhim davr hisoblanadi. Bu davrda N. o‘z ijodi ila o‘zbek adabiyotini yuksak cho‘qqilarga ko‘tarish b-n birga o‘zbek tilining taraqqiyotiga ham o‘zining salmoqli hissasini qo‘shdi.

N. yaratgan asarlar ham fikriy, ham adabiy jihatdan juda yuksak saviyada bo‘lgani sababli dunyoga tez tarqaldi va shoirning o‘z davridayoq ilm ahlining, jumladan, tilshunoslarning diqqatini jalb qildi. Natijada, N. asarlari asosida yozilgan grammatika va lug‘atlar vujudga keldi. San’at va mafkura nuqtayi nazardan N. butun dunyo madaniyatiga ulkan xazina taqdim etdi. Shuning u-n ham N. tili hozirgi kunda ham tilshunoslarning ilmiy tadqiqotlariga mavzu bo‘lib kelmoqda.

N.ning o‘zbek tili hamda o‘zbek xalqi u-n qilgan xizmati faqat uning “ko‘p va xo‘b” yozgani b-n belgilanmaydi. Uning buyuk va asosiy xizmatlaridan yana biri bu tilni butun o‘zbek xalqi u-n umumiy bo‘lgan me’yorga solganidir. Bu adabiy tilning eng muhim xususiyatlaridan hisoblanadi. Darhaqiqat, N. bilimdon va mohir tilshunos hamdir. Ma’lumki, o‘rta asrlarga kelib, fors va arab tillari biri ilm-u fan va biri she’r-u adab tili sifatida hukm surib keldi va natijada turkiy tilli ziyolilar asarlarini o‘z tillarida emas, mazkur tillarda yozishga majbur bo‘lgan. Chunki “turkiy til she’riyatdagi nafis tuyg‘ular va tushunchalarni ifodalashga qodir emas, turkiy til badiiy asar yozishga yaramaydi, degan soxta tushunchalar hukmron edi. Natijada, o‘zbek tiliga mansub xon va sultonlar ham o‘z shon-u shuhratlarini dunyoga ko‘z-ko‘z qilish, o‘z nomlarini tarix sahifalarida muhrlash u-n fors tilida madhiyalar yozdirdilar. N. esa, shunday bir sharoitda turkiy tilda o‘lmas asarlar yozib, bu tilning ham she’riyat, ham ilm tili ekanligini isbotlab berdi.

Turkiy tillar va adabiyoti bayrog‘ini yuksaklarga ko‘tarib, bu xalqlarni til jihatdan “yakqalam” qilgan N. haqli ravishda:

Turk nazmida chu men tortib alam,
Ayladim ul mamlakatni yakqalam, –

deb faxrlanadi.

Bobur o‘z “Boburnoma”sida Andijon shahri aholisi va uning tili haqida ma’lumot berib, ularning tili N.asarlari tiliga juda yaqin ekanligini aytib, N.ning bu da’vosini tasdiqlaydi: “eli turkdur, shahar va bozorisida turkiy bilmas kishi yo‘qtur. Elining lafzi qalam bila rosttur. Ani uchunkim, Mir Alisher Navoiyning musannafoti bovjudikim Hirida nash-u namo topiptur, bu til biladur”.

H. Vamberi, I.Berezin kabi sharqshunos olimlar Boburning bu fikrini quvvatlaydilar. Lekin I.Ilminskiy N. adabiy tili Andijon aholisining tiliga yaqin bo‘lsa ham, aynan bir xil bo‘lgan emas, deb ta’kidlaydi. Chunki xalq jonli tilida arab va fors tilga xos so‘zlar va iboralar N. asarlarida bo‘lganidek, ko‘p darajada bo‘lgan emas. Lekin Ilminskiy bu fikrni bayon qilar ekan, o‘sha davrda arab va fors tillarining ijtimoiy mavqeyini nazarga olsak, turkiy adabiy tili u-n bu holat tabiiy bir hodisa ekanligini hisobga olmaganga o‘xshaydi.

Har holda rus olimi R.Melioranskiy ta’kidlaganidek, XIV–XV asrlarda Movarounnahrda, Xuroson va Xorazm vohasida iste’molda bo‘lgan

o‘zbek adabiy tili tarkibi adabiy til b-n mahalliy shevalarning o‘zaro munosabati jihatdan murakkab xususiyatga ega edi. XIII asrning ikkinchi yarmidan shakllana boshlagan turkiy adabiy tilda N.gacha bo‘lgan davr ichida bir shaharda yashab turli sheva va lahjalarda ijod qilgan shoirlar talaygina. N.ning ilmiy muvaffaqiyati shundaki, bu tilni turkiy xalqlar u-n “yakqalam” qilgani hamda turli iddaolarni rad etib, turkiy tilni ham she’riyat, ham ilm tili ekanligini isbotlab berganidadir.

N. ona tilini himoya qilish, ona tilining boyligi va sofligi u-n tolmas, charchamas kurashchi sifatida maydonga chiqdi. Turkiy tilning qiymati va ahamiyatini kamsituvchilarga muntazam qarshi kurashdi. O‘z ona tilining boyligini, qudrat va salobatini, uning cheksiz imkoniyatlarga ega ekanligini katta kuch va g‘ayrat b-n ko‘rsatish harakatida bo‘ldi. Bu tilda ham manzum, ham mansur asarlar yozib uning ifoda qudratini isbotlab berdi. U aynan “M.L.” asarida turkiy tilning keng imkoniyatlari borligini ilmiy va adabiy jihatdan dalilladi. Uning bu asari keyingi avlodlar u-n ham dastur va ilhomlantiruvchi manba bo‘lib qoldi.

N. boshqa til va millatlarga yot nazar b-n qaramadi. Forsiy til va adabiyotiga ham munosib hissa qo‘shdi.

N.ning til u-n olib borgan kurashini uch jabhada, ya’ni buyuk shoir va yozuvchi sifatida, oliy martabali yirik davlat arbobi hamda ulug‘ mutafakkir, tilshunos olim sifatida davom ettirdi.

U o‘zining yuksak adabiy qiymatga ega bo‘lgan muborak asarlarini ona tilida yozish orqali turk-o‘zbek tilining qudratini, uning boy tasviriy vosita va imkoniyatlarga ega ekanligini, to‘liq ma’noda badiiy adabiyot tili ekanligini amaliy tarzda isbotlab berdi. N. o‘z adabiy-badiiy asarlarini yaratish jarayonida juda muhim va murakkab ikki vazifani o‘z oldiga qo‘ydi. Biri turkiy adabiy tilni yuksak darajada rivojlantirish va takomillashtirish hamda tom ma’nodagi turkiy adabiyotni yaratish va undan o‘z xalqini bahramand qilish bo‘lsa, bu adabiy tilni ijtimoiy-siyosiy jihatdan himoya qilish N.ning ona tili uchun, uning davlat tili bo‘lishi u-n olib borgan kurashining ikkinchi yo‘nalishini tashkil qilar edi.

N. ko‘p yillar davomida, xususan, Sulton Husayn Boyqaro saltanatida muhrdor, vazir, amiri kabir singari mas’uliyatli lavozimlarda ishlab, saroyda, devon va mahkamalarda rasmiy ish yuritish sohalariga rahbarlik qildi. Podshohlikning amiri kabiri sifatida davlat devonxonalarida rasmiy ish yuritish, noma, farmon va buyruqlar yozishda fors tili yonida o‘zbek tilini ham keng qo‘lladi, uni davlat tili darajasiga ko‘tarish u-n juda ko‘p harakatlar qildi. “Xalq bilan xalq tilida so‘zlashish kerak”, degan qoidaga amal qilgan N. sulton va shahzodalarga yozgan maktublarida, hokim, dorug‘a va devonbegilarga, turli amaldor va do‘stlariga yo‘llangan noma va maktublarida ona tilini himoya va targ‘ib qildi va bu sohada ko‘p samarali natijalarga erishdi.

N.ning turkiy tilning boyligi va ifoda qudratining yuksakligini isbotlash u-n olib borgan kurashining yana bir muhim tomoni uning til haqidagi ilmiy-nazariy qarashlari hisoblanadi. U yetuk tilshunos olim sifatida turkiy tilda “M.L.” nomli tom ma’nodagi dastlabki tilshunoslikka oid kitob yaratgan juda ulkan olimdir. Bu kitobda o‘zbek adabiy tilini shakllantirish, o‘zbek adabiyotini yaratish, uni rivojlantirish sohalarida olib borgan kurashini, ko‘p yillik mehnatlari va boy tajribalarini umumlashtirdi, chuqur ilmiy-nazariy xulosalar chiqardi. N. mazkur asarida o‘z xalqi orasidan chiqqan tab’ ahlining o‘z ona tillarini qo‘yib boshqa tilda yozishlarini kuyinib, achinib tilga oladi va *“andin so‘ngrakim, turk tilining jomi’iyati muncha daloil bila sobit bo‘ldi, kerak erdikim, bu xalq orasidan paydo bo‘lg‘on tab’ ahli salohiyat va tab’larin o‘z tillari turg‘on o‘zga til bila zohir qilmasalar erdi va ishga buyurmasalar erdi. Va agar ikkala til bila aytur qobiliyatlari bo‘lsa, o‘z tillari bila ko‘prak aytsalar erdi va yana bir til bila ozroq aytsalar erdi”*, – deydi. Zero, “M.L.” o‘zbek tilining fasohati va balog‘ati masalalarini qamrab olgan ilmiy risoladir. Ta’kidlash kerakki, N. ushbu asar b-n qiyosiy tilshu-

noslikka asos soldi, o‘zbek tilshunosligini turkiy tilda boshlab berdi, til, nutq va tafakkur birligini isbotladi, lingvistikani uslubiyat b-n bog‘liqlikda o‘rganish yo‘rig‘ini ko‘rsatdi. “M.L.” asarining bu belgilari N.ning jahon tilshunoslik ilmi tarixida yuksak qadrlanishiga asos bo‘ldi. Eng muhimi, asarda til b-n adabiyot masalalari bir butun, yaxlitlikda olinadi, ular bir-biriga bog‘liqlikda tahlil qilinadi.

“M.L.”da so‘zning tovush tuzilishi haqidagi fonetik tahlillar ham, so‘z shakllarining hosil bo‘lishi, so‘z yasalishi kabi morfologik tahlillar ham, so‘z ma’nosi, sinonimiya, omonomiya, ma’nodagi badiiy jilvalar haqidagi leksik-semantik sharhlar ham, oxir-oqibat, uslubiy-badiiy nutq uslubiga olib borib bog‘lanadi. M-n, so‘zning tovush jihatlari, unlilarning yumshoq-qattiqligi borasidagi misol va sharhlardan so‘ng N. ularning qofiya hosil qilish xususiyatlari haqida fikr yuritadi: *“Andoqki,* ***aro*** *lafzin* ***saro*** *va* ***daro*** *bila qofiya qilsa bo‘lur,* ***sara*** *va* ***dara*** *bila ham qofi bo‘lur”*.

N. o‘zbek tilida so‘z shakllarining hosil qilinishi va yasalishi masalasida juda mukammal tahlillar bayon etadi. U turkiy tilda so‘zni turli morfologik shakllarga kiritish va yangi so‘zlar yasash juda oson kechishi, shuning u-n o‘zbek tilining so‘z boyligini oshirish qiyin emasligi, forsiy tilda esa bunday imkoniyat cheklanganini dalillaydi.

O‘zbek tilidagi ko‘p ma’nolilik, sinonimiya, omonomiya hodisalariga batafsil sharhlar berib, N. o‘z ona tilidagi bu imkoniyatning badiiy tasvir u-n beqiyos ahamiyat kasb etishini ta’kidlaydi. Asosiysi, keltirilgan misollar badiiy matndan, asosan, o‘z she’riyatidan olingan.

N. “M.L.”da til haqidagi chuqur tahlillari, ilmiy mushohadalari ortidan o‘z asarlarining nomlarini tilga oladi, ularning mazmun-mundarijasiga lingvistik fikrlarini bog‘laydi, asarlarining qaysi uslubda va mazmunda yaratilgani va badiiy xususiyatlari to‘g‘risida fikr yuritadi. M-n, “Lison ut-tayr” ovozi bilan qo‘shiq aytib, haqiqat sirlarini qush tili ishorati bilan majoz suratida ko‘rsatibmen, “Nazm ul-javohir” bilan ma’ni qizlarining kiyimlarini bezantirdim”, “Mezon ul-avzon” daryolarida g‘avvos bo‘lib, bu yo‘l bilan Nosir Tusiydan uzr tiladim”, – deb yozadi. So‘ng shoir o‘z ustozlari ijodiga munosabat bildiradi, ularning so‘z boyligi, tasviriy vositalarni qo‘llash mahorati borasida qimmatli filologik fikrlar bildiradi va xulosa chiqaradi *“...alfoz va iboratdin murod ma’nidur va mazkur maxluqotdin maqsud insondur*”. Bu esa badiiy asar tili masalalarini to‘g‘ri anglay olish va maqbul hal qila olish u-n adabiyotshunoslik va tilshunoslik ilmlari o‘rtasidagi hamkorlik masalalarini N. qarashlariga suyanish lozimligini ko‘rsatadi. Shuningdek, badiiy mahsulni sof lingvistik yoki sof adabiyoshunoslik b-n emas, balki umumfilologik qolipda tahlil qilish, baholash tilshunoslik fani rivoji u-n muhim nazariy to‘xtamlarga kelish mumkinligini ko‘rsatadi.

N. yaratgan “X.M.” she’riy majmuasi so‘z va ma’nolar ko‘lami jihatidan“ma’nolar xazinasi”dir. Shu kungacha dunyoda N.dek boy so‘z xazinasiga ega bo‘lgan ijodkor yo‘q. Olimlarning fikricha, N. Pushkin va Shekspirga nisbatan 5-6 mingdan ortiq so‘z boyligiga egadir, u jami 26000 dan ortiqroq yangi so‘z qo‘llagan. Demak, o‘zbek tilining so‘z boyligi o‘sha paytda juda yuqori bo‘lgan. Aslida, bu til hodisasining asl mohiyatini N. bundan 500 yil ilgari juda to‘g‘ri ko‘rsatib bergan edi. “M.L.”-da, m-n, ***yig‘lamoq*** so‘zining 7 ta ma’no sinonimlari misollar b-n izohlanib, oxirida bu so‘zning uslubiy sinonimi ***hay-hay yig‘lamoq*** ham borligi ko‘rsatiladi. Bu esa mutaxassisni darsliklarda va ilmiy sharhlarda sinonomli so‘zlar haqidagi “Shakli har xil, ma’nosi bir xil so‘zlardir” degan ta’rifning birmuncha mohiyatdan uzoqligini, ma’nodosh so‘zlarning N. ko‘rsatganidek yana uslubiy va nutqiy turlari borligiga ahamiyat berishga yo‘naltiradi.

Sinonimlarning nutqdagi, ayniqsa, badiiy nutqdagi o‘rni va ahamiyati juda kattaligini to‘g‘ri payqagan N. *“mengacha sinonimlar sohasida turkiy tilning forsiyga qaraganda bu qadar ortiqligi va haqiqatda buncha nozikligi va kengligi she’r sohasida yoyilmadi va tashlandiq holga*

kelgan edi”, – deb afsuslanadi. Demak, sinonimlar ham uslub nuqtayi nazaridai baholanadi.

N. “M.L.” asarida *“arab tilidan boshqa yana uch nav’ til (ya’ni turkiy, forsiy va hind) borki, bular hamma tillarning aslidir. Yofas, Som va Xomning avlodlari va yaqin kishilari dunyoga yoyildilar, zichlashib (ko‘payib) ketdilar”* – deb yozadi. Bu esa turkiy xalqlarning etnik tarixini va turkiy tillarning qiyosiy grammatikalarini yaratish vazifasini qo‘yadi.

N.ning mazkur fikrlari ilmiy asarlarda, oliy o‘quv yurtlarining darslik va qo‘llanmalarida XV asr Markaziy Osiyo tilshunosligi tarixi u-n maxsus bo‘lim ajratishni taqozo etadi. Yevropadan 400 yil oldin qiyosiy-tarixiy tilshunoslikni N. boshlab bergani “Jahon qiyosiy-tarixiy tilshunosligi XIX asrda Yevropada vujudga keldi, uning asoschisi nemis olimi Fon Vilgelm Gumboltdir”, – degan qarashning noto‘g‘riligiga dalildir.

Shuni qayd qilish kerakki, bu davr adabiy tili faqat N.ning adabiy-ilmiy va ijtimoiy faoliyati bilangina emas, balki N.ning o‘tmishdoshlari, zamondoshlari va izdoshlari faoliyati b-n ham uzviy bog‘langan. O‘zbek adabiy tilining shakllanishi va rivojlanishida ular o‘zlarining muayyan hissalarini qo‘shganlar.

N. asarlarida adabiy janrlarga xos badiiy matnlarda o‘z davri adabiy tilining taraqqiyoti, takomillashib borishi u-n zarur bo‘lgan barcha vositalar xalq tili boyliklari b-n uyg‘unlashib qo‘shilib ketadi.

N. tili tarixiy-tadrijiy rivojlanishi jihatidan ham, uslubiy boyligi va rang-barangligi tomonidan ham juda murakkab hodisadir. Uning asarlarida faqat N.ning o‘ziga xos xususiy til hodisalari, badiiy ijodiy xususiyatlarigina aks etib qolgan emas. Balki shu b-n birga u o‘zbek tilining boy imkoniyatlaridan keng foydalangan holda o‘z davri adabiy tili va adabiyotining xilma-xil uslublarini vujudga keltirdi.

N.ning ona tili u-n olib borgan kurashi oson kechmadi. Bu yo‘lda u katta qiyinchiliklarga, amir va beklarning qarshiligiga, o‘z xalqi orasidan chiqqan forsigo‘y shoir va yozuvchilarning ta’na va malomat toshlariga nishon bo‘ldi. Ammo N. o‘zining haqligiga, o‘zi olib borgan ishning muqaddas ekanligiga to‘la ishonar edi. Bu ish o‘z xalqining tarixi va taqdiri b-n bog‘liq bo‘lgan katta davlat va umumxalq ahamiyatiga ega ish ekanligini yaxshi bilar edi. Uning orzusi o‘z xalqining tilini davlat tili maqomiga ko‘tarish, o‘z xalqi u-n hamma sohalarda fors tilidagidek rivojlangan adabiyot yaratish, uni badiiy ijodning yaxshi durdonalaridan bahramand qilishdan iborat edi. Darhaqiqat, N. o‘z orzusi, o‘z kurashi yo‘lidagi barcha ziddiyatlar va mone’larni yengib, turkiy tilning ifoda qudrati, salohiyat va go‘zalligini rad etib bo‘lmas dalillar asosida isbotladi, uni taraqqiy ettirdi. Turkiy adabiy tilni fors tilida yozilgan asarlar b-n raqobat qila oladigan bebaho asarlar b-n boyitdi.

Turkiy til va adabiyotini rivojlantirish sohasida o‘z oldiga qo‘ygan vazifalarni yuksak darajada ado etgan N. o‘z xalqi u-n, uning madaniyati u-n va umuman kelgusi nasllar u-n katta sharafli ishlarni amalga oshirdi.

Men ul menki, to turk bedodidur,
Bu til birla to nazm bunyodidur,
Falak ko‘rmadi men kebi nodire,
Nizomiy kibi nazm aro qodire.

– deb faxrlanishga tom ma’noda haqlidir.

N. o‘zbek adabiy tilining ajralmas bo‘lagi bo‘lgan o‘zbek terminologiyasining shakllanishi hamda taraqqiy etishiga katta xizmat qilgan. Uning asarlarining tahlili shuni ko‘rsatadaki, bugungi o‘zbek terminologiyasining shakllanishini o‘rganishda uning asarlari asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. M-n, N. o‘zining deyarli barcha asarlarida qalam ahliga o‘z munosabatini bildirib, ularni ta’riflashda 20 dan ortiq atamalardan foydalangan: *xattot, bitikchi, qalamzan, raqamzan, xushnavis, roqim, huruf roqimi, muharrir, munshiy, navisanda, ahli qalam, qalam ahli, kotib, yozg‘uchi, varaqnigor. varaqnavard, qalamkash, musannif, mushafnavis, bitguchi, baxshi, dabir, tasnif ahli* kabilar. Birgina sohaga oid terminlar qatoridan ko‘rinib turibdiki, N. o‘z asarlarida boshqa tillardan o‘zlashgan ham-

da o‘zbek tilida yangi yasalgan so‘zlarga keng o‘rin beradi. U til qonuniyatlarini buzmagan holda ko‘pgina yangi so‘zlarni ijod etib, yana ularni o‘z o‘rnida mohirona qo‘llay olgan. Demak, N. xorijiy so‘zlarga juda to‘g‘ri munosabatda bo‘lgan. Ba’zi olimlar chet so‘zlardan butunlay voz kechishga undaydilar yoki chet so‘zlar hisobiga so‘zlarini yo‘qotishni talab qiladilar. N.da buning aksi bo‘lib, u turkiy so‘zlar b-n bir qatorda fors va arab so‘zlaridan ham unumli foydalangan. Bu o‘rinda N. arab va fors tillarini mukammal bilgani holda hind, pushtu, mo‘g‘ul va boshqa tillardan xabardor bo‘lgani uning tilshunoslikka qo‘shgan hissalarini ta’minlagan eng xarakterli omil bo‘lganini ta’kidlash kerak.

N. ulkan dialektolog sifatida deyarli barcha asarlarida o‘sha paytda benihoya rang-barang bo‘lgan shevalar xususiyatlarini birlashtirdi, o‘zlashtirma so‘zlardan ham unumli foydalandi. Xususan, o‘zbek shevalari N.ning shoh asari – “X.” asari tilidagi leksik dialektizmlar b-n qiyosanlanganda, bu tilga oid ko‘plab lisoniy birliklarni o‘zida mujassam etgan bu asardan mazkur shevalardan qo‘llanayotgan so‘zlar ham o‘rin olgani aniqlangan. M-n:

*Dilbar sochidek **harosi** jonda,*
Men shunda, nechunki ko‘nglum onda.

Javridin xotirini aylab sof,
*Unutib har nekim deb erdi **gazof**.*

*Ko‘z kirib ev **kunj**iga ranjur uchun,*
Qoshlar anga hojib o‘lur nur uchun.

Shoir ushbu misralarda ***dahshat, qo‘rqish, vahima*** ma’nolarini ifodalashda **haros**; ***uydirma, soxta*** so‘zlari o‘rnida **gazof**; ***burchak*** lafzi o‘rniga **kunj** kabi dialektal leksemalarni qo‘llagan.

Zotan, N.ning umri davomida yaratgan “X.”, “X.M.”, “T.A.H.”, “M.Q.”, “M.A.”, “M.N.”, “N.M.” singari jami 40 dan ortiq asarlari adabiyot, til, falsafa, tarix, musiqa, siyosat, harbiy sohalarga bag‘ishlangan bo‘lib, ulardagi so‘z boyligi tilshunos olimning shevashunoslikdagi mukammal salohiyatini namoyon etadi.

N. ijodida qo‘llanilgan dialektizmlar o‘zbek tilining qarluq-chigil, uyg‘ur, qipchoq, o‘g‘uz lahjalariga oid noyob so‘zlar ekani b-n ham manfaatlidir. Bundan tashqari, N. o‘zbek tili lug‘at boyligining barcha qatlamlari va leksik guruhlariga doir lisoniy materiallarni o‘z asarlarida mahorat b-n ishlatib, tilning badiiy-uslubiy imkoniyati serqirraligini yoritib bergan. Shuning u-n shoir asarlarida turkiy tilning eng qadimgi leksik qatlamiga doir poetik timsol va obrazlar ham uchraydi.

Xulosa sifatida shuni aytish kerakki, N. o‘zining betakror asarlari b-n nafaqat eski o‘zbek tilini butun Xuroson va Movarounnahrda yashovchi turkiy xalqlar u-n umumxalq tili darajasiga ko‘tardi, balki uning asarlari boshqa turkiy xalqlar tiliga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmadi. N. hayotligidayoq uning asarlari mamlakat chegaralarini oshib, Eron, Ozarbayjon, Sharqiy Turkiston, Misr, Turkiya va boshqa o‘lkalarga yetib bordi. Bu holat, tabiiyki, o‘sha yerdagi turkiy xalqlarning tiliga o‘z ta’sirini o‘tkazgan. N. shuning u-n o‘zini so‘z mulkining sultoni bilib, butun turkiy tilli xalqlarni o‘z farmoni ostiga olganini go‘zal ifoda etadi:

Agar bir qavm, gar yuz, yo‘qsa mingdur,
Muayyan turk ulusi xud meningdur.

Olibmen taxti farmonimga oson,
Cherik chekmay Xitodin to Xuroson.

Xuroson demakim, Sheroz-u Tabrez,
Ki, qilmishdur nayi kilkim shakarrez.

Ko‘ngul bermish so‘zumga turk jon ham,
Ne yolg‘uz turk, balki turkmon ham.

Ne mulk ichraki bir farmon yibordim,
Aning zabtiga bir devon yibordim.

Darhaqiqat, N.ning dunyo miqyosida tan olinishi, asarlarining turli tillarga tarjima qilinishi va asarlari asosida yuzlab ilmiy va tahliliy kitob

va maqolalar yozilishiga sabab, uning o‘z asarlari orqali ilmiy-nazariy, fikriy-amaliy jihatdan dunyo madaniyatiga qo‘shgan ulkan ulushi va turkiy tilning rivojiga qo‘shgan buyuk hissasidir.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-жилдлар. – Т., 2011; Қодиров М. Алишер Навоий ва ҳозирги ўзбек тилшунослиги. Тўпламда: Навоийга армуғон. 4-китоб. – Т., 2004; Аминяр Н. Ўзбек адабий тилининг шаклланишида Н.нинг тутган ўрни. // “Алишер Навоий ижодий меросининг умумбашарият маънавий-маърифий тараққиётидаги ўрни” мавзуидаги халқаро илмий конференция материаллари. – Тошкент-Навоий, 2017; Йўлдошев И. Алишер Навоий ва ўзбек терминологияси. // “Алишер Навоий ижодий меросининг умумбашарият маънавий-маърифий тараққиётидаги ўрни” мавзуидаги халқаро илмий конференция материаллари. – Тошкент-Навоий., 2017.*

S.R.

“TO DASHT BAHOR BIRLA RANGIN BO‘LG‘AY...” – N. ning “G‘.S.” devoniga kiritilgan ruboiysi:

To dasht bahor birla rangin bo‘lg‘ay,
Gulzor nigorxonayi Chin bo‘lg‘ay.
Dasht uzra senga saltanat oyin bo‘lg‘ay,
Gulzor aro taxt ustida taskin bo‘lg‘ay.

Bahor fasli va bahor go‘zalliklaridan ilhomlanib she’r yozmagan shoir topilmasa kerak. Faqat borliq-olamda emas, balki inson ruhi va ko‘nglida ham bahor kuchli o‘zgarish, yangilanish paydo qiladi. Bahor zavqi, ko‘klam shavqi yurakda qanchadan-qancha bezavol tuyg‘ular, hayotbaxsh hislarni jonlantirib yuboradi. Bu fasldagi orziqish va intilishlar umidbaxshdir. Har bahorda inson siyratida go‘yo daraxt gullaydi, gul ochilib, qushlar sayraydi. Bahor kuy-qo‘shiqlari – birlik, shukronalik kuy-qo‘shiqlari. Ular karaxtlik va ruhsizlikni quvadi. Qishning qahri va sovuq zarbalaridan qutulgan kimsasiz sahro-yu biyobonlar ham yam-yashil liboslarga burkanib, lolazorlarga aylanadi. N.ning ruboiysi b-n tanishgan kishi shularni o‘ylaydi, o‘ziga oshno bahor manzaralarini xayoldan o‘tkazadi.

Dasht-u sahrolar bahor ranglari b-n chulg‘anganda, – deydi shoir, – gulzorlar Xitoy rassomlarining suvratxonalariga o‘xshab qoladi. Va har bir gulda, chechakda bir chin mahva ishning zeboligini ilg‘ashing mumkin. Ey bahor oshig‘i, ko‘ngilni dasht-u biyobon kengliklariga tutashtirib, o‘sha joy, o‘sha manzillarda yayrab kezish, quvnab vaqt o‘tkazishni katta davlat, tiriklik saltanati, deb bilgil. Yurakka taskin-tasallini esa gulzordagi “taxt”-da kechgan osuda damlaringdan izla:

Dasht uzra senga saltanat oyin bo‘lg‘ay,
Gulzor aro taxt ustida taskin bo‘lg‘ay.

N.ning boshqa bir qator ruboiylari kabi ushbu ruboiysini ham so‘z va so‘z ranglari b-n chizilgan bir ko‘rkam suvrat desa bo‘ladi. Unda bahor quchog‘idagi dasht, turfa gullar g‘uncha yozgan gulzor, bahor oshiqlari kayfiyati eng nozik chizgilari ila tasavvurda jonlanib keladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011.*

I.H.

TOBADON / TOBDON (f.) – yorug‘lik – quyosh nuri tushishi u-n uyning tepa qismiga qo‘yiladigan darcha, tuynuk. Mahalliy binolar (uy xonalari, hammom, madrasa hujralari, masjid va boshqalar)ning eshigi yoki derazasi tepasida yorug‘lik yoki havo kirishi u-n qo‘yiladigan panjarali tuynuk. Panjara ziynat u-n bo‘lib, yog‘och yoki ganchdan yasalgan va ba’zida maxsus naqsh berilgan.

Bu so‘z aslida *tobdon* shaklida bo‘lib, u ikki tarkibiy qismdan iborat: *tob (tap)* – harorat, issiqlik; quvvat, mador va *-don* ism yasovchi qo‘shimcha. N. g‘azallari va dostonlarida bu so‘zdan keng foydalangan. M-n:

Shishadek ko‘nglumdadur gulzori husning yodidin
Tobadoning aksidek alvon qizil, sorig‘, yashil.

Bo‘lub gulrang ravzan, tobdon ham,
Eshik gulrang, balkim oston ham.

Ad.: *Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик, 3-жилд. – Т., 1984; Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. – Душанбе, 1987; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 3. – Душанбе, 2004.*

E.O.

TOJIBOYEVA Mahbubaxon (1984) – f.f.n. 2011-y. “Alisher Navoiyning “Ilk devoni”dagi arabcha so‘zlarning leksik-semantik talqini” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan. Olima devondagi jami so‘zlarni statistik jihatdan o‘rganib, quyidagi xulosaga kelgan: jami qaytariqlari b-n 49160 ta so‘zdan 6700 ta turkiy, 1040 ta fors-tojik, 32060 ta arabizm.

Devondagi arabcha so‘zlar so‘z turkumlari bo‘yicha talqin qilingan. Asardagi so‘zlarning katta qismini arabcha so‘zlar tashkil etadi. Fe’l, sifatga oid so‘zlar ot turkumidan kamroq. “Ilk devon”da ot turkumiga tegishli arabcha so‘zlar ma’no-xususiyatlaridan kelib chiqib, quyidagicha guruhlashtirilgan:

1. Atoqli otlar: *Ali, Muhamad, Iso*; 2. Turdosh otlar: *aysh, barq, iyd, olam*; 3. Aniq otlar: *soat, qasr, jism*; 4. Mavhum otlar: *ishq, fano, shukur*; 5. Sifat turkumiga oid so‘zlar: *abad, abtar, abus*. Ravish, olmosh, undov so‘z turkumlariga oid so‘zlar kam uchraydi. Devonda arabcha+forscha qolipidagi so‘zlar tahlil qilingan: *aybjo‘y, alamangiz, ahzarpo‘sh*.

Ishda “Ilk devon”dagi 391 ta g‘azal, 2 ta mustazod, 41 ta ruboiyning har birida qo‘llangan arabcha so‘zlar hisoblab chiqilgan. Shoir arabcha so‘zlarga ijodiy yondashgan.

Axtar so‘zi devonda *axtari tobnok, axtari purtob, axtari sa’d, axtari qaro bo‘lmoq, axtari mahomtob* shakllarida ishlatilgan. Dissertatsiyada arabcha so‘zlarning vaznlariga e’tibor berilgan. Ishda arabcha so‘zlar vositasida tazod, tashbeh kabi san’atlar yaratilgani ko‘rsatilgan.

Ad.: *Тожибоева М. Алишер Навоийнинг “Илк девон”идаги арабча сўзларнинг лексик-семантик талқини. Филол. фан. номз. Автореф. – Т., 2011.*

E.U.

TOJIK – millat nomi va shu millat so‘zlashadigan tilni anglatadi. Tojiklar Markaziy Osiyodagi qadimiy xalqdir. Ular hind-yevropa oilasidagi eroniy tillarning janubiy-g‘arbiy guruhiga mansub tojik tilida so‘zlashadilar. T. xalqi, asosan, hozirgi Tojikiston, Afg‘oniston, O‘zbekiston, Qirg‘iziston hamda Pokistonda yashaydi.

Tarixiy tadqiqotlarga ko‘ra, T.larning ajdodlari mil.av. birinchi ming yillik boshlarining 2-bosqichida Markaziy Osiyoga tarqalgan sug‘diylar, baqtriyaliklar va saklar edi. Ularning etnik shakllanishida ushbu qabilalar asos bo‘lgan. IX–X asrlarda Somoniylar davlatining tashkil topishi b-n T. larning etnik o‘zagining shakllanish jarayoni ham yakunlandi. Va fors-tojik tilining adabiy til sifatida mustahkamlanishiga zamin bo‘ldi. Fors-tojik tilida yaratilgan diniy, ilmiy, badiiy asarlar keyinchalik bu tilning ilm-fan va adabiyot tiliga aylanishini mustahkamladi. T. va o‘zbek xalqlarining yashash tarzi, urf-odatlari, e’tiqodiy qarashlari mushtarakligi u-n ular orasida hamisha siyosiy, ijtimoiy, ma’rifiy va hatto, adabiy munosabatlarda do‘stona aloqada bo‘lishgan. N. ijodida ham bu til va millatning o‘rni beqiyos. Zero, u fors tilida ham ijod qildi va bu tildagi adabiy meros b-n yaxshi tanish bo‘lgan. “N.Sh.” devonidagi “Orazing shavqi damikim aylanur qonlig‘ ko‘ngul” misrasi b-n boshlanuvchi g‘azalida:

Ko‘zlaringkim turki tojik o‘ldi ko‘nglum mulkida,
Zulm etar ul nav’kim bir kishvar ahlig‘a chug‘ul,

bayt uchraydi. Lirik qahramon ko‘ngilda ma’shuqaning ko‘zlari turk-u T. bo‘lib ig‘vo solayotganini aytsa, “D.F.”da badiiyatda yangi bir tashbehga duch kelamiz:

Nigori turk-u tojikam kunad sad xona vayrona,
Bad-on mijgoni tojikona-vu chashmoni turkona.

Tarj.: O‘sha tojiklarcha kiprik va turklarcha ko‘zlar bilan turk-tojik nigorim yuzlarcha uyni vayron qiladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Девони Фоний. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011.*

Z.R.

“TOIYA” (“Qasidayi Toiya”) – Qofiyasi “to” harfi bilan tugagan qasida) – N. yodga olgan asarlardan biri. “T.” Ibn Forizning 750 baytdan iborat qasidasidir. U “Nazm ud-durur” (“Nazm durlari”) nomi b-n ham yuritiladi. Abdurahmon Jomiy uning qasida ichida mustaqil sanalgan 75 baytini sharhlab, “Sharhi ba’zi abyoti qasidai Toiyayi Foriziya” (“Foriz Toiyasining ba’zi baytlari sharhi”) nomli risola yozadi. U muxtasar qilib “Sharhi qasidayi Toiya” (“Toiya qasidasi sharhi”) deb ham yuritiladi. Har bir bayt 5-6 satr hajmida qisqa, sodda va ravon sharhlangan. “T.”ga Shayx Izzuiddin Mahmud Koshiy va Shayx Muso Sadroniy va boshqalar ham sharh yozganlar.

Ad.: *Ғаниева С. Навоий ёдга олган асарлар. – Т., 2004; Холмўминов Ж. Жомий ва ваҳдат ул-вужуд таълимоти. – Т., 2008.*

E.O.

TOYIR G‘ASSON – G‘assoniylar sulolasiga mansub arab hukmdori. Eramizning IV asrining birinchi yarmida hukmronlik qilgan. Sosoniylar imperiyasiga qarshi dushmanlik siyosatini olib borgan va sosoniylar davlati hududiga bostirib kirgan hamda talon-taroj qilib qaytib ketgan.

T.G‘. haqida N. o‘zining “T.M.A.” asarida ma’lumot bergan. Bu ma’lumot T.G‘.ning chindan ham sosoniylar b-n urushlar olib borganini tasdiqlaydi. N.ning yozishicha, sosoniylar sulolasidan Shopuri Zulaktof (Shopur II) hukmronligi davrida T.G‘. Shopurning yoshligidan foydalanib, uning mamlakatini talagan, Shopurning xolasini asir qilib olib ketgan va unga uylangan va bir qiz ko‘rgan. Shopur voyaga yetgandan so‘ng lashkar tortib borib, T.G‘. b-n jang qilgan. T.G‘. bir qal’ani mustahkamlab, qarshilik ko‘rsatgan. Shopur T.G‘.ning qizi b-n til biriktirgan va uning yordamida qo‘rg‘onni egallagan. T.G‘. ni qo‘lga tushirgan hamda qatl etgan.

N. negadir T.G‘. tomonidan asir qilib olib ketilgan ayolni Shopurning xolasi deb yozadi. Aslida u ayol Hurmuzning singlisi. Shopuri Zulaktof esa Hurmuzning o‘g‘li. Demak, u Shopurga xola emas, amma bo‘lgan.

N., shuningdek, o‘z otasiga nisbatan sotqinlik qilgan T.G‘.ning qizi taqdirini ham aytib o‘tadi va bu rivoyat o‘quvchini befarq qoldirmaydi hamda o‘ziga xos didaktik-tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Всемирная история. – Минск, 2008; История древнего мира. Древний Восток. – Минск-Москва, 2000.*

Q.E.

TO‘RT TAKBIR – Bu aslida janoza namozidagi T.T. bo‘lib, majozan dunyoviy bog‘liqliklarni mahv etishga ishora qiladi.

Ma’lumki, “L.T.” dostonidagi Shayx San’on qissasi aslida majoziy ishqning haqiqiy ishqqa aylanish jarayoni tasviridan iborat. Zohiriy ilmlarda zamonasining yagonasi bo‘lgan bu mashhur zot tarso qiziga oshiq bo‘lib, uning ishqida barcha zohiriy narsalardan (aql, rutba, shuhrat, din, e’tiqod) voz kechadi. Mahbuba talabiga ko‘ra may ichadi, zunnor bog‘laydi, Mus’hafni o‘tda kuydiradi va butparast bo‘ladi. Qo‘shimchasiga bir yil kunduzi to‘ng‘iz boqib, kechasi otashgohda o‘t yoqib chiqadi.

Ishqning bu to‘rt erur shukronasi,
Yona ikki ish erur jurmonasi.

Kim erur bu to‘rt takbiri fano,
Ul iki bu to‘rt ifnosi yano.

Xo‘kbonlig‘ keldi bir yil yonasi,
Bo‘lmoq otashgoh o‘ti devonasi.

Bularning barchasi aslida undagi kibr-u g‘ururni, nafs-u havoni sindirish, shahvatni mahv etish yo‘lidagi sinovlar edi. Bu riyozat bosqichlaridan o‘tgan shayxning majoziy ishqi haqiqiy ishqqa badal bo‘ladi. Bularning bari zohiriy-rasmiy narsalar bo‘lib, ulardan qutulmay Haqqa yetib bo‘lmaydi. Talab vodiysi tasvirida N.ning o‘zi buni 4 takbiri fano deb ataydi. Chunki ilohiy ishq yo‘lida oshiq hamma narsadan kechishi talab qilinadi. Hatto jon ham bu yo‘lda to‘siq hisoblanadi.

Fard erur oshiq tan-u jondir dog‘i,
Aql-u hush-u kufr-u iymondin dog‘i.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Насриддин А. Фарҳанги мушкилоти адабиёт. – Х., 2016.*

E.O.

TO‘XLIYEV Boqijon (1954, Asht (hozirgi Sug‘d viloyati) – adabiyotshunos, n.shunos, folklorshunos, tarjimon, pedagog. Tojikiston Respublikasi Asht tumanidagi O‘zbek Oqjar qishlog‘ida xizmatchi oilasida tug‘ilgan. Xo‘jand DUni imtiyozli diplom b-n tugatgan (1970–1974). Avval o‘z qishlog‘idagi maktabda o‘qituvchi va direktor o‘rinbosari bo‘lib ishlagan (1974–1978). So‘ng O‘zR FA Til va adabiyot instituti aspiranturasida tahsil olgan (1979–1982). O‘zR Milliy kutubxonasi (1079–1980), O‘zR FA Qo‘lyozmalar instituti (1980–1983), Tarix muzeyi (1983–1986), Til va adabiyot instituti (1986–1989)da faoliyat ko‘rsatgan.

1989-y.dan uning ilmiy-pedagogik faoliyati TDPI b-n bog‘landi: katta o‘qituvchi (1989), “Rus guruhlarida o‘zbek tili va adabiyoti” (1989–1992), “O‘zbek tili va adabiyoti” (1992–1994), “O‘zbek tili va adabiyoti” (1992–1994), “O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi” (1994–2012) kafedralari mudiri, “O‘zbek tili va adabiyoti” fakulteti dekani (1993–1996), magitraturaning “Ijtimoiy-guanitar fanlar” fakulteti dekani (2002–2004), “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi prof. (2012–2016) lavozimlarida ishladi. 2016-y.dan ToshDShU “Matnshunoslik va manbashunoslik” kafedrasi prof.

“Qutadg‘u bilig”ning poetikasi masalasi” mavzusida nomzodlik (1983), “Yusuf Xos Hojib va turkiy xalqlar folklori” mavzusida doktorlik (1992) dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qilgan. 1993-y.da prof. ilmiy unvonini oldi.

Bu tadqiqotlar nafaqat O‘zbekistonda, balki Markaziy Osiyo respublikalari, qator xorijiy mamlakatlarda ham mazkur sohadagi salmoqli tadqiqotlar sifatida e’tirof etildi. U turkiy xalqlar adabiyotining bu noyob obidasini ilmiy jihatdan tadqiq etish b-n kifoyalanibgina qolmay, keyinchalik uning bir necha she’riy va nazm-u nasr aralash tarjimalarini ham amalga oshirdi (1990; 2004; 2009; 2010; 2014; 2022).

Nuktadon va nozikta’b adabiyotshunos, bilimdon va mohir pedagog qalamiga mansub o‘nlab monografiya va risolalar, ta’limning turli bosqichlari – maktablar, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari, oliy ta’lim u-n darslik va o‘quv qo‘llanmalari, metodik tasviyanoma va dasturlar, 500 ga yaqin ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar, konferensiya ma’ruzalari o‘zbek adabiyotini tadqiq va targ‘ib etish, o‘qitish va o‘rgatish masalalariga bag‘ishlangan. Olim tomonidan yaratilgan o‘rta maktablarning 9-10-sinflar u-n “Adabiyot”, akademik litsey va kollejlar u-n “O‘zbek adabiyoti”, “Pedagogika tarixi” darsliklari, oliy ta’lim muassasalari u-n “Adabiyot o‘qitish tarixi”, “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi”, “Mutaxassislik fanlarini o‘qitish” kabi darslik va qo‘llanmalar shular jumlasidandir. Ular o‘rta, o‘rta-maxsus va oliy ta’lim sohasi til va adabiyot yo‘nalishi o‘quvchi va o‘qituvchilari, talaba va magistrlar

u-n boy nazariy va amaliy manbalar sifatida mutaxassislar tomonidan e'tirof etilib, qayta-qayta nashr qilinib kelmoqda. Bir qator ilmiy ishlari Rossiya, Turkiya, Ozarbayjon, Tojikiston, Qirg'iziston, Malayziya kabi xorijiy mamlakatlar va qardosh respublikalarda chop etilgan.

T.B.ning ilmiy izlanishlari doirasi keng va serqirra bo'lib, Sharq mumtoz so'z san'ati va tasavvuf ta'limoti, o'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyoti, folklorshunoslik va pedagogika, tilshunoslik va nutq madaniyati yo'nalishlarida ko'plab tadqiqotlarni amalga oshirgan. "Вопросы поэтики "Кутадгу билиг" Юсуфа Хас Хаджиба" (2004), Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig"i va ayrim janrlar takomili (Masnaviy. To'rtlik. Qasida)" (2004), "O'zbek xalq qo'shiqlari. Yor-yorlar" (2009), "Zahiriddin Bobur hayoti va ijodi (albom)" (2012), "Yusuf Xos Hojib va turkiy xalqlar folklori" (2013), "O'zbek tili va imlo" (2013), "Badiiy ummon qatralari" (2015), "Darsliklar bilan ishlash metodikasi" (2008), "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi (Qo'llanma)" (2008), "So'z turkumlari va nutq o'stirish metodikasi" (2008), "Adabiyot o'qitish metodikasi (O'quv qo'llanma)" (2010), "O'zbek tili" (2010; 2011), "O'zbek tili o'qitish metodikasi. Oliy o'quv yurtlarining bakalavriat bosqichi uchun o'quv qo'llanma" (2010), "Adabiyot o'qitish metodikasi" fanidan o'quv-uslubiy majmua" (2011), "Til va adabiyot ta'limining zamonaviy texnologiyalari" (2011), "O'zbek tili o'qitish metodikasi" (2012), "Ifodali o'qish. 5-sinflar uchun o'quv qo'llanma" (2016; 2019) kabi kitoblari buning yorqin isbotidir.

O'tgan asrning 80-yillaridayoq "Qush tilining tadqiqi", "Xozoyin-ul maoniy" emas, "Xazoyin ul-maoniy" kabi maqolalari b-n navoiyshunoslikdagi ilk qadamlarini qo'ygan serqirra olim o'tgan yillar mobaynida "Alisher Navoiy asarlaridagi bir xalqona tasvir usuli haqida", "Navoiy va badiiy adabiyot", "Alisher Navoiy dar borayi Jomiy", "Alisher Navoiyning badiiy kashfiyotlari haqida", "Nasoyim ul-muhabbat" haqida", "Bir qit'a tahlili", "Садриддин Айний – ученый навоивед", "Alisher Navoiy lirikasida qarilik tasviri", "Ibrohim Haqqulov va o'zbek navoiyshunosligi ravnaqining ayrim masalalari", "Navoiy didaktikasi", "Navoiy g'azallarining ingliz tiliga tarjimalari xususida", "Falak ko'rmadi men kibi nodire", "Iskandar obrazining Sharq va G'arb manbalarida tadqiq etilishi", "Navoiy nazmidagi nozik nuqtalar", "G'aroyib us-sig'ar"dagi xalq maqollari", "G'aroyib us-sig'ar"da tasvir va badiiy kashfiyot" kabi bir necha o'nlab maqolalari b-n vaqt matbuotda, turli to'plamlarda va ilmiy-amaliy anjumanlarda chiqishlar qildi. "Alisher Navoiy ijodida kasb-hunar madhi" (2001), "Yusuf Xos Hojib va Alisher Navoiy" (2001), "Alisher Navoiy hayoti va ijodi (albom)" (2010; 2013), "Navoiyni o'rganamiz" (2010), "Hayrat ul-abror"dagi hikoyatlar tahlili uchun materiallar" (2010), "Badiiy asarlarni sharhlab o'rganish (mumtoz adabiyot misolida)" (2013), "Alisher Navoiy va yoshlar tarbiyasi (Monografiya)" (2015), "Navoiyshunoslik" (2017) kabi kitoblar chop ettirdi.

Ilmiy-pedagogik faoliyati b-n bog'liq ravishda T.B.ning N.ga oid izlanishlari ko'proq shoir hayoti va ijodini o'rganish, asarlarini o'quvchilar, talabalar va o'qituvchilarga o'rgatish metodikasi, tadqiq va tahlil qilish usullariga bag'ishlangan. "Alisher Navoiy ijodida kasb-hunar madhi", "Yusuf Xos Hojib va Alisher Navoiy", "Layli va Majnun"dagi bir bayt tahliliga doir", "Navoiyning epik asarlarini tahlil qilish", "Navoiy g'azallarini tahlil qilish tajribasidan", "Navoiy ijodini o'rganishning ma'rifiy-estetik ahamiyati", "Ta'lim bosqichlarida Alisher Navoiy hayoti va ijodini o'rganish muammolari", "Alisher Navoiy asarlarining tahlil metodikasi muammolari", "Alisher Navoiy asarlarini o'rganishda zamonaviy texnologiyalarning o'rni va ahamiyati", "Alisher Navoiy g'azallarini tahlil qilish metodikasi", "Boshlang'ich sinflarda Navoiy asarlarini o'rganish xususiyatlari", "Ta'lim bosqichlarida Navoiy asarlarini o'rganish", "G'azal va uni tahlil qilish metodikasi", "Alisher Navoiy asarlarining ta'lim bosqichlarida o'rganish mummolari" kabi maqolalari shular jumlasidan.

N. g‘azallarni sharhlash T.B.ning n.shunoslik faoliyatini asosiy yo‘nalishlaridan birini tashkil etadi. U yillar davomida shoir g‘azallarini sharhlash prinsiplari haqida “Alohida baytlarning nasriy bayonlari”, “Sharh va unga qo‘yiladigan asosiy talablar”, “Zohiriy va botiniy ma’nolar talqini”, “Mumtoz matnlarni sharhlab o‘rganish xususiyatlari”, “Sharhlarda amaliyotda foydalanish imkoniyatlari”, “G‘azal matni va uni anglash san’ati”, “Alisher Navoiy asarlari sharhi – o‘quvchilardagi adabiy qiziqishlarni oshirish omili”, “G‘azal sharhi – ma’rifiy mashg‘ulotlar manbayi sifatida “, “G‘aroyib us-sig‘ar”dagi g‘azallar sharhiga oid ayrim mulohazalar”, “Ma’nolar xazinasi” sari yangi yo‘l”, “G‘azal sharhi – ma’rifiy mashg‘ulotlar manbayi sifatida “Har lahza qil anga yuz inoyat, yo Rab...” singari maqolalar yozdi, “Navoiy g‘azallari” (2015), “Navoiy o‘gitlari (2016)”, “Ta’lim bosqichlarida Alisher Navoiy hayoti va ijodini o‘rganish” (2017), “Alisher Navoiy ijodida bilim va ma’rifat talqini” (2020) , “Bir ishta mahorat chu zohir bo‘lur...” (2021) kabi ilmiy-ma’rifiy, axloqiy-ta’lim xarakterdagi kitoblar yaratdi. Ayni paytda navoiyshunoslarni uyushtirib “X.M.” g‘azallarini sharhlar yo‘nalishida ish olib bordi va ularni bir nechta kitob holida e’lon qilib bordi (2013, 2014; 2016; 2017; 2018; 2019). Nihoyat “G‘.S.” devonidan o‘rin olgan g‘azallar sharhini 10 jildda nashr ettirdi. Bu jildlarning har biriga shoir g‘azallarini sharhlash prinsiplari haqida alohida so‘zboshilar yozdi.

Ma’lum bo‘ladiki, T.B. n.shunoslikda N. asarlarini tadqiq etish va sharhlash, talqin va tahlil qilish, targ‘ib va tashviq etish, o‘qish va o‘qitish, ulug‘ shoir adabiy merosini salaflari, zamondoshlari va izdoshlari asarlari b-n adabiy an’ana va o‘zaro ta’sir jihatidan qiyosiy o‘rganish, qardosh xalqlar adabiyoti namunalari b-n muqoyasa qilish kabi bir necha yo‘nalishlarda har tomonlama keng va chuqur tadqiqotlar olib borayotgan serqirra va sermahsul n.shunos olimdir.

Ad.: *Алишер Навоий ижодида касб-ҳунар мадҳи. – Т., 2001; Юсуф Хос Ҳожиб ва Алишер Навоий. – Т., 2001; Алишер Навоий ҳаёти ва ижоди (альбом). – Т., 2010; 2013; Навоийни ўрганамиз. – Т., 2010; “Ҳайрат ул-аброр”даги ҳикоятлар таҳлили учун материаллар. – Т., 2010; Бадиий асарларни шарҳлаб ўрганиш (мумтоз адабиёт мисолида). – Т., 2013; Алишер Навоий ва ёшлар тарбияси (Монография). – Т., 2015; Навоийшунослик. – Т., 2017; Навоий ғазаллари. – Т., 2015; Навоий ўгитлари. – Т., 2016; Таълим босқичларида Алишер Навоий ҳаёти ва ижодини ўрганиш. – Т., 2017; Алишер Навоий ижодида билим ва маърифат талқини. – Т., 2020; “Бир ишта маҳорат чу зоҳир бўлур...”. – Т., 2021; Навоий ғазаллари (насрий баён, шарҳ ва изоҳлар). – Т., 2013; 2014; 2015; 2016; 2017; 2018; 2019; Алишер Навоий. Ғаройиб ус сиғар. Ғазалларнинг шарҳ ва изоҳлари. 1–10-китоблар. – Т., 2020.*

E.O., M.A.

U

UBAYDULLOXON (1487, Xorazm – 1540, Buxoro) – Mahmud Sulton ibn Budog‘ Sulton ibn Abulxayrxon o‘g‘lidir, shayboniylar saltanatining asoschilaridan biri, Buxoro xoni (1533–40), mutasavvif olim, shoir va yetti xil husnixatda yoza oladigan xattot. Muhammad Shayboniyxonning (1451–1510) jiyani. Otasi Mahmud Sulton (1454–1505) piri Xoja Ubaydulloh Ahrordan yolg‘iz farzandiga ism qo‘yishni iltimos qiladi. Ulug‘ pir Nosiridin Ubaydulloh (Xoja Ahror) unga iltifot qilib, o‘z nomini bergan. U. o‘z davrining yetuk ulamolari Abdulla Yamaniy, Xoja Muhammad Sadr, Yor Muhammad Qori, Faqih Xoja Mulloyi Isfahoniy, xattot Mullo Muhammad Amin va boshqalardan saboq olgan. U. 1504-y.da amakisi Suyunchakxonning qiziga uylanadi. Mahmud Sulton Qunduzda vafot etgach (1505), 18 yoshli o‘g‘li Ubaydullaxonga Shayboniyxon Buxoro va Xorazm hokimligini topshiradi. O‘sha davr tarixchisi Mahmud ibn Vali U.ni “o‘z zamonasining No‘shirovoni” desa, Mirzo Haydar U.ning taxtga o‘tirgan zamonini quyidagicha ta’riflaydi: “Ubaydulloxon hamma yaxshi xislatlari o‘ziga mujassamlashtirgan podshoh erdi... U xizmat qilib turgan Buxoro xalqining yaxshi va fozilligi, farovonligi jihatdan Hirotni va Husayn Mirzo zamonini eslatadi”. U. haqida “Tarixi Muqimxoniy”da “Adolat shevasida yagona, jang jabhasida bahoyat farzona edi”, deyilgan. U. amakisi Shayboniyxonning barcha harbiy yurishlariga qatnashgan. Shayboniyxon safaviylar tomonidan qatl etilgandan so‘ng, Bobur va 40 minglik safaviy qo‘shini shayboniylarni Turkistonga chekinishga majbur etadi (1511). Bir yildan so‘ng (1512) yana U. Movarounnahrga qaytib kelib, Ko‘li Malik (G‘ijduvon yaqini) jangida Boburning 70 minglik qo‘shinini o‘zining 5 ming saralangan askari b-n mag‘lub qiladi. Bobur Mirzo Samarqandga va u yerdan oilasini olib, Hisori Shodmon tomonga ketadi.

1533-y.da Abu Saidxon ibn Shayboniyxon vafotidan so‘ng sultonlar ichida eng yoshi ulug‘i U. shayboniylar sulolasining boshi qilib ko‘tarilgan. U. poytaxtni Samarqanddan Buxoroga ko‘chiradi. Shundan keyin davlatning nomi rasmiy ravishda Buxoro xonligi deb atalgan. U. hukmronligi davrida Buxoroning Husayn Boyqaro zamonidagi Hirot kabi siyosiy, iqtisodiy va madaniy mavqeyi kuchaygan. Buxoroda Mir Arab madrasasi, Ko‘hak (Zarafshon) daryosi ustida Mextar Qosim ko‘prigi va b. inshootlar qurilgan. U. “Ubaydiy” taxallusi b-n o‘zbek, fors va arab tillarida ijod qilgan. Uning umumiy (arab, fors, o‘zbek) 573 g‘azal, 900 ga yaqin ruboiy, 34 qit’a, 16 fard, 18 masnaviy, 10 muammo, 11 tuyuq, 2 yor-yor, 4 fard, tarjiband, diniy-tasavvufiy, axloqiy-didaktik mavzular talqiniga bag‘ishlangan “G‘ayratnoma”, “Shavqnoma”, “Omonatnoma”, “Sabrnoma” manzumalari, “Masoil us-salot” masnaviysi va 230 ta hikmat janridagi she’rlari (345 varaqli) kulliyot shaklida (8931 raqamli, O‘zR FAShI) va Sulton Ali Mashhadiy tomonidan ko‘chirilgan faqat g‘azallardan iborat devoni Britaniya muzeyida, shuningdek, o‘zbekcha she’rlaridan iborat 136 g‘azal, 1 muxammas, 1 tarjiband va 37 ruboiyni o‘z ichiga olgan “Devoni Ubaydulloxon”, yana shu nom b-n 51 g‘azal, 1 ruboiy, 6 farddan iborat bir kitobi Turkiyada saqlanadi. Istanbuldagi “Nuri Usmoniy” kutubxonasida 4904 raqamdagi “Jomi’ ul-maoniy” nomli majmuadan Ubaydiyning diniy-tasavvufiy mavzuga mansub bir qancha g‘azallari, 4 ruboiy-

si, 1 tarjiband, masnaviy, noma janridagi she’riy asari o‘rin olgan. Shoirning “Masoil us-salot”, ruboiylar, hikmatlar, munojot, g‘azallar, bir hadis tarjimasi, tarjiband, Ahmad Yassaviyga bag‘ishlangan bir madhiyadan tarkib topgan terma bayoz Turkiya (Kunyo)da Izzat Quyun o‘g‘lining xususiy kutubxonasida saqlanmoqda. U., asosan, Ahmad Yassaviyga ergashib, hikmat janrida ijod qilgan. Hikmatlarida tasavvufiy-ma’rifiy va axloqiy ma’nolar aks etgan:

Ko‘ch eldek, ey rafiq, olam bari ko‘charo,
Ko‘z yumub ochkuncha aziz umring kecharo.
O‘lum solur motamg‘a, odam o‘g‘lin har g‘amga,
Aqli bo‘lg‘on odamg‘a ushbu ibrat etaro...

U. 54 yoshida Buxoroda vafot etadi va Xoja Bahouddin Naqshband qabrining oyoq uchi tomonida (1540) Dahmai shohon (Shohlar daxmasi)dagi shayboniylar xilxonasida dafn etilgan.

U.ning turli janrdagi she’rlari diqqat b-n o‘rganilsa, N.ga bog‘langanligi, ustoz deb N.ga o‘zini yaqin tutishga uringanligiga aslo shubha qolmaydi. Bu haqiqatning bir dalili sifatida shoirning quyidagi baytiga e’tibor qaratish kifoya:

She’rlar aytib Ubaydiy ham Navoiy she’ridan,
Ko‘rki, shoirlar aro ul dog‘i shoir bo‘lg‘usi.

Darhaqiqat, shoir she’riyatidagi adl-u insof, mehr va shafqat, haq va haqiqat kabi fikr va tushunchalarda ham N.ga izdoshlik samarasi mavjuddir.

Ad.: *Абдуллаев М. Убайдий ҳаёти ва адабий фаолияти. – Т., 2000.*

Muh.A.



UVAYSIY (To‘liq ismi: Jahon otin Uvaysiy (1779–1845, Marg‘ilon) – shoira. Marg‘ilon shahridagi Childuxtaron mahallasida ma’rifatli oilada dunyoga keladi. Otasi Siddiqbobo madrasani tugatgan, adabiyot va musiqa ilmini yaxshi egallagan ziyoli kishi bo‘lib, kosiblik b-n kun kechirgan. O‘zbek va tojik tillarida Fayziy taxallusi b-n she’rlar ham yozgan. Uni Hofiz bobo deb ham atashgan. Onasi Chinnibibi ham savodli ayol bo‘lib, maktabdorlik qilgan va o‘z atrofidagi mehnatkashlarning bolalarini o‘qitgan. Onasidan xat-savod chiqarib, otasidan arab va fors tillari hamda adabiyotini, akasi Oxunjon hofizdan musiqa ilmi, dutor va tanbur chalishni o‘rganib olgan Jahonbibi tez orada onasining yoniga kirib, otinlik qilgan. Otasi yosh o‘lib, onasi b-n qolgan Jahon otin mustaqil ravishda Hofiz, Jomiy, N., Fuzuliy va Bedil asarlarini mutolaa qiladi va o‘zi ham she’rlar yozib, U. nomi b-n shuhrat qozonadi. Sharq so‘z san’atining bu kabi zabardast namoyandalarini ijod yo‘lida o‘ziga ustoz deb bilgani, ulardan muttasil o‘rgangani, ularga ergashgani, ular ta’sirida qalam tebratgani ham shoiraning she’riy iste’dodi va badiiy didi naqadar baland bo‘lganligini ko‘rsatadi.

17 yoshida Hojixon (ba’zi manbalarda Tojixon) ismli ma’rifatli kishiga turmushga chiqib, undan 2 farzand – Quyoshxon ismli qiz va Muhammadxon degan o‘g‘il ko‘radi. Ota-onasidan so‘ng umr yo‘ldoshidan ham ajralib, 2 bolasi b-n beva qolgan U. qayta turmush qurmagan.

U.ning ta’rifini eshitgan Nodira uni xonlik poytaxti Qo‘qonga chaqirtirib olib, saroydan joy beradi. Haramga keltirilgan qizlarga Nodira murabbiylik qilib, ularning xat-savodini chiqargan, adabiyot va musiqa ilmlaridan saboq bergan. Bu ishda Jahon otin uning yaqin ko‘makchisiga aylangan. Ayni paytda, u Nodira b-n ijodiy hamkorlik qiladi. Konibodom, Xo‘jand, O‘ratepa, Toshkent, Andijon shaharlariga sayohat qilib, ijodiy doiralar b-n tanishadi, ular b-n yaqin aloqa o‘rnatadi. Lekin 3–4 yildan keyin saroyni tark etishga majbur bo‘lgan U.ga Nodira Qo‘qon shahridan hovli olib beradi. Lekin otasidan keyin taxtga o‘tirgan Ma’dalixon onasi olib berganini bahona qilib, bu uyni shoiradan tortib olib, Qashqar yurishidan ergashtirib kelgani Hasan baqqol degan muttaham kimsaga beradi. Uning bu kimsa-

siz mushtipar ayolga o‘tkazgan jabr-u zulmi shu b-n tugamaydi. U.ning endigina 14 yoshga to‘lgan o‘g‘li Muhammadxonni avval mahramlikka oladi, so‘ng uni sarboz qilib, Qashqar yurishiga jo‘natadi. U shu ko‘yi dom-daraksiz ketadi. Shoiraning o‘g‘li hajrida chekkan dard-u iztiroblari “Sog‘indim”, “Yuborsunlar” radifli qator g‘azallarida, “Karbalonoma” dostonida o‘z ifodasini topgan. Garchi doston Payg‘ambar (s.a.v.) nuridiydalarining fojiali taqdiriga bag‘ishlangan bo‘lsa-da, u oilasining tirgagi, naslining davomchisi bo‘lgan yolg‘iz o‘g‘lidan judo bo‘lgan U. qalbining oh-u faryodlariga yo‘g‘rilgan.

U.ni Qo‘qonga bog‘lab turgan birdan-bir ilinj xonlik poytaxtida turib, yakka-yu yolg‘iz o‘g‘lidan biror darak topish, uni so‘rab-surishtirish mumkinligiga ojiz ishonchi edi. 1842-y.da Buxoro amiri Nasrulloxon Qo‘qonni egallagach, Marg‘ilonga qaytib umrining oxirigacha shu yerda yashaydi.

U.ning 4 ta devon tuzganligi ma’lum. Ularning nusxalari Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik ins-ti qo‘lyozmalar xazinasi va Andijon DU kutubxonasida saqlanadi.

U o‘ziga U. taxallusini ham riyozat bosqichlarini rahnamosiz bosib o‘tgani, o‘zini o‘tib ketgan buyuk pir-u valiylarning ruhi kelib tarbiya qilgani ma’nosida tanlagan. Bu haqda uning o‘zi: “Ey orif, riyozat bosqichlarini bosib o‘tmagan deb manga ta’na toshini otma, chunki men – Uvaysiyman: meni ulug‘ shayxlardan birining ruhi tarbiyalagan”, – deydi:

Vaysiy beriyozat deb sahl tutma, ey orif,
Ishq aro nihon dardi bedavo Uvaysiyman.

Ma’lum bo‘ladiki, U.ning o‘zi – tariqatga, ijodi – tasavvufga muayyan darajada daxldor.

O‘zining hassos she’riyati b-n U. o‘zbek mumtoz adabiyotida o‘ziga xos o‘rin tutadi.

U.ning ijodiy takomilida N.ning adabiy merosi katta o‘rin tutadi. U buyuk salafining “Aylasa”, “Ekin oyo”, “Fido”, “Senga”, “Tushdi o‘t”, “Aylagach”, “O‘ynar”, “Hanuz”, “Ermin”, “Aylar orzu” “Kelmadi”, “O‘lturg‘usi” radifli ko‘plab g‘azallariga tatabbu’lar qilgan, “Ey orazi nasrin, sochi sunbul, qadi shamshod”, “Ey, quyosh vasfin demaktin, moh ruxsoring g‘araz”, “Kechti umrum naqdi g‘aflat birla nodonlig‘da hayf” misralari b-n boshlanadigan g‘azallariga taxmislar bog‘lagan, qator navoiyona baytlar ijod qilgan. M-n, U.ning:

Bir sho‘xi zamon ko‘rdum – dilbarmu ekin oyo?
Boshig‘a qo‘yan egri afsarmu ekin oyo, –

bayti b-n boshlanadigan g‘azali N.ning:

May birla yuzung tim-tim ahmarmu ekin oyo,
Yo shu’la aro bir-bir axgarmu ekin oyo?

g‘azaliga tatabbu’ sifatida yaratilgan. Lekin u buyuk salafi g‘azali ta’siri va ilhomida o‘ziga xos ohorli g‘azal ijod qiladi. Vazn, qofiya tartibi va radif aynan saqlangani b-n 8 baytli tatabbu’da 9 baytli g‘azaldagi faqat “xanjar” va “bovar” degan 2 qofiyagina takrorlanib, qolgan 7 tasi yangilangan. Mavzu ham boshqa yo‘nalishda davom ettirilgan. Ya’ni u shaklan ustoziga ergashib, mazmunan o‘ziga xos yo‘ldan borgan. Shoiraning boshqa tatabbu’larida ham shu holni ko‘ramiz.

N. g‘azallariga bog‘lagan taxmislarida ham U. ulug‘ shoir fikrlarini davom ettirish va ularning yangi qirralarini ochish, tashbehlarini esa boyitishga harakat qiladi. Natijada g‘azal baytida o‘z aksini topgan fikr muxammas bandlarida rivojlangan, kengaygan, chuqurlashgan va sharhlangan tarzda namoyon bo‘ladi. M-n, N.ning “Ey orazi nasrin...” deb boshlanadigan g‘azalining maqta’dan oldingi bayti “Bu chamanda gul yaprog‘i bulbul qanotini yuladigan tirnog‘larga o‘xshaydi” degan falsafiy fikr obrazli yo‘sinda ifodalangan. U. ham o‘zini zor bulbulga nisbat berib, mening badanim ham jarohatga to‘la bo‘lib, ularni ko‘ylagim yashirib turibdi, binobarin, bulbul tikan zaxmidan fig‘on aylamasinkim (bu dunyoda bag‘ri yara bo‘lgan birgina u emas ma’nosidagi) misralarini qo‘shish b-n baytning mazmun doirasini yanada kengaytiradi va chuqurlashtiradi:

Zaxmim meni izhor emasdur badan ichra,
Izhor agar o‘lsa erur pirahan ichra,
Bulbul na fig‘on aylamasunkim tikan ichra,
Gul yafrog‘i tirnog‘lar erur bu chaman ichra,
Bulbul par-u bolini yulub bergali barbod.

U.ning bir qator baytlarida ham N. baytlari b-n mushtaraklikni ko‘ramiz. M-n, shoiraning:

G‘arib ko‘nglumi bilgung tururki Baytulloh,
Bu so‘z bilan ani ikrom ayla, aylanayin, –

bayti N.ning “H.A.” dostonidagi mashhur olamning qiblasi bo‘lishiga qaramay, Ka’baning ko‘ngil ka’basichalik qadri yo‘q mazmunidagi mana bu baytiga hamohang jaranglaydi:

Ka’baki, olamning o‘lub qiblasi,
Qadri yo‘q onchakim, ko‘ngul ka’basi.

U.ning quyidagi baytlari esa N.ning “F.Sh.” hamda “L.M.” dostonlari ta’sirida bitilgani shubhasiz:

Shirin dey-u Farhod haqiqatga ulandi,
Mansur kabi jonidin oxir guzar o‘lg‘on.
Tegdi asare Layli parichehrasidinkim,
Qays erdi ne uchun o‘zidin bexabar o‘lg‘on.

U. ijodida, shuningdek, N.ning may qadahida yor aksi jilvalanadi, degan baytiga hamohang baytlarni, o‘zlik istilohi, quyun timsoli b-n bog‘liq mushtarak fikr-u tashbehlarni ham uchratamiz.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-жилдлар. – Т., 2011; Увайсий. Девон. – Т., 1959; 1963; Увайсий шеъриятидан. – Т., 1980; Кўнгил гулзори. – Т., 1983; Чўлпон. Адабиёт надир? – Т., 1993; Уч шоира. – Т., 1958; Иброҳимова Э. Увайсий. – Т., 1963; Жалолов Т. Ўзбек шоиралари. – Т., 1970; Ҳаққул И. Шеърият – руҳий муносабат. – Т., 1989; Олим С. Увайсий ҳам увайсиймиди? // Ишқ, ошиқ ва маъшуқ. – Т., 1992; Очилов Э. Сўзлари – ишқ рамзи // Барҳаёт сиймолар (Мақолалар тўплами). – Т., 2012.*

E.O.

UVAYSIYLIK – Allohning payg‘ambari aytganidek: “...ehson va mehribonligi bilan tobiinlarning yaxshisi” bo‘lgan Uvays Qaraniy nomi b-n bog‘liq. Ul zot Rasulullo davrida yashasalar-da, Muhammad (s.a.v.)ni ko‘rmagan. Ammo uning Rasulullohga muhabbati nafaqat islom tarixi, balki adabiyotda ham alohida ahamiyatga ega. “N.M.” tazkirasida Uvays Qaraniy nomi zikr etilgan birinchi shayxdir. Mazkur tazkirada U. shunday izohlanadi: “Uvays Qaraniy Hazrat Risolat (s.a.v.)ni ko‘rmabdur erdi va ul Hazrat ham oni zohir ko‘zi bila ko‘rmabdur erdilar. Ma’no-yu ruhoniyat yuzidin tarbiyat qilib erdilar. Bu jihatdin har kishiningki, bu toifadin zohir yuzidin piri ma’lum bo‘lmasa va mashoyixdin birining ruhi oni tarbiyat qilg‘on bo‘lsa, oni Uvaysiy derlar”. Solikni Muhammad (s.a.v.), Xizr (a.s.) yoki o‘tgan buyuk avliyolardan birining ruhi g‘oyibona tarbiyalasa, tariqatda U. deb ataladi. N. “N.M.”da Xoja Bahouddin Naqshband (q.t.s.), Mavlono Zaynuddin Abubakr Toybodiy (q.s.), Mavlono Jaloluddin Abuyazid Puroniy (q.s.), Shayx Fariduddin Attor Nishoburiy (q.s.), Mavlono Nuruddin Abdurrahmon Jomiy (q.r.) larning uvaysiy ekanini ta’kidlaydi. Bahouddin Naqshband hazratlarining haqiqat yuzidan tarbiyatni ustozlari Hazrat Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy (q.s.) ruhidan topganini shunday izohlaydi: “Andoqki, der ermishlarki, mabodii ahvolda bir kecha g‘alaboti jazabotdin Buxoro mazorotidin uch mozorg‘a etishdim... So‘nggi mutabarrak mazorda qiblag‘a mutavajjih o‘lturdum va ul tavajjuhda g‘aybate voqe’ bo‘ldi. Mushohada qildim. Qibla devori shaq bo‘ldi va bir ulug‘ taxt paydo bo‘ldi va yashil parda ul taxt ollig‘a tortilg‘on va tegrasida jamoate... Pire ko‘rdum – nuroniy. Salom qildim. Javob berdilar va so‘zlarni, suluk mabdayida va vasatida

va oxirida keraklikdur, menga bayon qildilar va dedilarki, ul chirog‘larki, ul kayfiyat bila senga ko‘rguzdilar ishorat-u bashoratdur senga bu yo‘l qobiliyat va iste’dodidin. Ammo iste’dod fatilasin harakatg‘a kelturmak kerak, to yorug‘ay va asror zuhur qilg‘ay”.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

Z.R.

UZAYR (a.s.) – payg‘ambarlar avlodidan. Qur’onda bir marta nomi zikr etilgan. Buxt unnasr Bayt ul-muqaddasni buzgan paytda, uni ham Bobilga asir qilib, olib kelgan. N.ning yozishicha, U. (a.s.) ancha vaqtdan keyin u yerdan ozod bo‘ladi va yo‘lda kelayotganda bir joyda to‘xtab, eshagini bog‘lab, bir daraxtga chiqib o‘tiradi. O‘tirgan daraxti anjir bo‘lib, yonida bir idishda uzum shirasi ham bo‘lgan. U. (a.s.) mazkur joy xarobalaridagi odamlarning qurigan suyaklarini ko‘rib, “Tangri bularni qanday qilib qayta tiriltirarkin”, – degan andishaga boradi. Haq taolo undan mutlaqo shubhani daf qilishni va haqiqatni aniq-tiniq ko‘rsatishni xohlab, jasadidan ruhini chiqaradi, eshagini ham jonsiz qoldiradi. Alloh taolo U. (a.s.)ni yuz yil xalq ko‘zidan pinhon asrab, bu muddatdan keyin qayta tiriltiradi. Shunda bir farishta undan, “qancha muddat o‘lik holda turding?”, – deya so‘raganda, “bir kun yo yarim kun”, deb javob beradi. Farishta esa: “Yo‘q, yuz yil turding. Taom va ichimligingga qara – buzilgan emas. Endi eshagingni (chirib, suyaklari ajrab ketganini ko‘rgin)”, dedi (“Baqara” surasi, 259-oyat).

“Tavrotni” U.dan yaxshi biladigan odam yo‘qligini aytishadi. “Tavrot”ni esa Buxtunnasr olib ketgandi. Shunda u “Tavrotni boshidan oxirigacha o‘qiydi. Ba’zilar yashirincha saqlab kelayotgan kitoblariga qaraydilar, o‘qigani b-n bir xil chiqadi. Ba’zilar bu mo‘jizadan uni “Allohning o‘g‘li” deb gumon qilishadi.

N. “T.A.H.”da bayon qilishicha, “olamning buzug‘lug‘i”ga sabab bo‘lgan zolim podshoh Buxtunnasr binni Kudarz ikki marta Bayt ul-Muqaddasni yer b-n yakson qilgan, Doniyol bila Uzayr (a.s.)ni asir olgan, Doniyol (a.s.)ni qo‘yib yuborgandan keyin bu payg‘ambar uni ustiga lashkar tortib, Xuziston qo‘rg‘oniga qamab, halok qilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Ислом. Энциклопедия. – Т., 2004.*

S.R

“UYDA RAVNAQDURUR...” – N.ning “F.K.” devoniga kiritilgan qit’asi:

Uyda ravnaqdurur, agar kishiga
Yaxshi hamxona bo‘lsa hamzonu.

Zeb ila turfa hargiz o‘lmas uy,
Bo‘lmasa anda turfa kadbonu.

O‘zbek xotin-qizlari u-n hayo merosiy fazilat. Ular mana shu ma’naviy nur b-n erkaklarning dil chiroqlarini ravshan, xonadonlarni fayzga to‘ldirib kelganlar.

Hazrat N.ning ushbu qit’asi bu da’voning yana bir misoli “Yaxshi hamxona” degan soddagina bir iborada sof va sadoqatli ayol u-n xos va zarur barcha xislatlar mujassamlashtirilgan, desa mubolag‘a bo‘lmaydi. N. talqinlarida yaxshi xotin, avvalo, yaxshi hamxona. Bu esa xonadon ravnaqidir. Bir-birini tushunish, osoyishtalik hayotning achchiq-chuchuklarini baham ko‘rmoq, mehr va ishonch – bularsiz qaysi oilada istiqbol bo‘ladi? Hazrat N. “H.A.”da: “Umr degan yori vafodor etmish”, – deydilar. Vafoli va zakovatli umr yo‘ldoshi – hayotning vafosidurki, taqdirning ayovsiz jafolarini yengadigan imkoniyatlardan biri mana shudir.

Xulqi xushlik – ayolning oliy ziynati. Uy u-n bundan ziyod zeb yo‘q. Uni axtarmaslik kerak. Chunki:

Zeb ila turfa hargiz o‘lmas uy,
Bo‘lmasa anda turfa kadbonu.

“Turfa kadbonu” – turmushda eriga hamdard-u hamqadam bo‘la olgan, fe’l-u atvori, husn-u jamoli tillarda doston zahmatkash uy bekasi sanaladi. Shunday ayolsiz xonadon xarob. N.ning bu ta’kidlari hozir ham o‘z kuchida: ayol mehridan ziynat topmagan uyni hech qanday zeb-u ziynat baxtsizlikdan qutqara olmaydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011; Ҳаққул И. Касби камол ўзни танишдир. – Т., 2021.*

I.H.

“UYLA G‘ARQI MAYDURURLAR XALQ BU DAVR ICHRAKIM...”

Uyla g‘arqi maydururlar xalq bu davr ichrakim,
Shar’ning aynul-hayotidan asar mafhum emas.
Ul sifotkim, bahrning achchig‘ suyida ba’zi el,
Topilur derlar chuchuk suv ham vale ma’lum emas.

Arab shoiri va olimi Abul Faroj bunday degan ekan: “Mayning aytishicha, ichgan odam to‘rt sifatga ega bo‘larkan. Dastlab u tovusga aylanib, o‘zini ko‘z-ko‘z qilarkan, harakatlari ravon va ulug‘vorlik kasb etarkan. Keyin maymun qiyofasiga kirib, hamma bilan hazillashib, maynavozlikka o‘ta boshlarkan. Undan so‘ng sherga o‘xshab o‘ziga bino qo‘yarkan, mag‘rurligi tutib ketarkan. Lekin oxirida cho‘chqaga aylanib, cho‘chqa singari axlatga ag‘anab yotapkan”.

“May”ning zukkoligiga qoyil qolish kerak. Chunki u shunchaki gapirayotgani yo‘q, mayxo‘rlarni masxaralab, ularning jirkanch sifatlari ustidan kulayotir. Ichkilikboz kimsalarning maymun qiyofasiga kirishi – bu ularning ham aqliy, ham ixtiyoriy ravishda orqaga chekinishi. “Sher”ligi – vahshiyligi va yirtqichligi. Nahotki, odam farzandi cho‘chqa holatiga tushishni o‘ziga or bilmasa? Ha, ichkilik kishini har qanaqa tubanlikka ko‘niktiradi. Shuning u-n inson qancha ko‘p ichsa, yaxshi fikrlash, zavq-shavq b-n mehnat qilish, ruh pokligi va hissiyot quvvatidan o‘shancha uzoqlashadi. Sarxushlik va mastlikka isrof qilingan soatlar foydali ishlarga sarf etilsa, insoniyat hayoti naqadar xayrli va ajoyib o‘zgarish, yuksalishlarga erishardi.

Uyla g‘arqi maydururlar xalq bu davr ichrakim,–

deydi N. Qanday dahshatli fojia bu. Mayga g‘arq xaloyiqdan nima ham kutish mumkin? Shuning u-n ular imondan judo, diyonatdan mahrum. Hatto shariatdagi hayot suvini fahmlashdan ham ojiz. Bu qanaqa sifat dersiz? Daryoning achchiq suvida shirin suv ham topiladi, deydigan o‘jar bandalarning sifati.

Ul sifatkim, bahrning achchig‘ suyida ba’zi el,
Topilur derlar chuchuk suv ham vale ma’lum emas.

“Ichkilik ichish zahar ichish kabi zararlidir”, deydi Seneka. Qo‘lga qadah tutganda, hech qanday foydaga umid ko‘zini tikmaslik kerak. May dengizining suvi hamisha achchiq va zaharlovchidir.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Ҳаққул И. Касби камол ўзни танишдир. – Т., 2021.*

I.H.

UYG‘UN (taxallusi, asl ismi-sharifi Rahmatulla Otaqo‘ziyev) (14.05.1905. Qozog‘iston, Jambul viloyati, Marki qishlog‘i – 22.04.1990. Toshkent) – shoir va dramaturg. O‘zbekiston xalq shoiri (1965), O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi (1956). O‘zbekiston Fanlar akademiyasining muxbir a’zosi (1974), Mehnat qahramoni (1985). U. N. tavalludining 500 yillik yubileyini nishonlash maqsa-

dida tuzilgan qo‘mita topshirig‘i (1938) asosida 1940-y.da “X.M.” (“Chor devon”)ni nashrga tayyorlagan hamda salmoqli so‘zboshi ham yozgan. U. kitobni nashrga tayyorlash jarayoni xususida matbuotda maqolalar e’lon qilib borgan. M-n, Sobir Abdulla b-n hamkorlikda “Chor devon” haqida” nomli maqola yozib, uni 1938-y.da e’lon qilgan. U.ning o‘zi “Chor devon”ni nashrga tayyorlash b-n bog‘liq masala va muammoni yoritib, “Chor devon haqida” maqolasini bitgan va uni 1939-y.da “O‘zbekiston madaniyati” gazetasida chop ettirgan.

U. o‘zbek shoiri N.ning 500 yilligiga bag‘ishlangan “Alisher Navoiy” (1942-y., Izzat Sulton bilan hamkorlikda) dramasini yozgan. Urushdan keyingi yillarda esa sahna uchun “Alisher Navoiy” dramasi keng tomoshabinlar ommasining N.ni kashf etish va ulug‘ shoirga muhabbat tuyg‘ulari b-n yo‘g‘rilishida, shuningdek, o‘zbek adabiyotida tarixiy-biografik drama janrining taraqqiyotida muhim ahamiyatga molik bo‘ldi. Shundan so‘ng U. “Alisher Navoiy” (1947, V.Shklovskiy bilan hamkorlikda) kinossenariysini ham yaratgan. U yana N. ning buyuk siymosiga bag‘ishlab, 1967-y.da “O‘lmas siymo” nomli maqola yozgan, mazkur maqola “O‘zbekiston madaniyati” gazetasida 1967-y.da nashr qilingan.

U. N. “MAT”ning 20 tomligida, xususan, 2-tomiga kiritilgan “Navodir un-nihoya” (1987, 620-bet) devonining nashrida tahrir hay’ati a’zosi sifatida ham qatnashgan.

Ad.: *https://n.ziyouz.com,uzbek nasri; Чор девон. – Т., 1940; Султон И. Навоийнинг қалб дафтари (тўлдирилган ва тузатилган 3-нашри). – Т., 2010; Қораев Т. Уйғун ижодида Алишер Навоий анъаналари. Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1981 йил 1-сони.*

B.R.

UYG‘UR – Markaziy Osiyoda yashovchi qadimgi turkiyzabon xalqlardan biri, etnonim. Markaziy Osiyo va Xitoy b-n bog‘liq tarixiy manba va hujjatlarda U. xalqining tili, madaniyati, baxshilari, tabiati, adabiy va diplomatik aloqalari, U. xoqonlari xususida ma’lumotlar yozilgan.

N. asarlarida ham U.lar xususida ma’lumot uchraydi. “V.”da shunday ma’lumot bor. Ya’ni: “uyg‘uriy” sifot baxshilar va “uyg‘ur”chargalik yaxshilar va ...boyrilik ayyomida xizmatkorlik qilg‘on jonsiporlar.

N. “M.N.”ning to‘rtinchi majlisida shoir Soqiy haqida bergan ma’lumotida uni U.lardan bo‘lib, “Ja’far baxshining o‘g‘lidur”, deb tanishtirgan.

Mirza Haydar “Tarixiy Rashidiy” asarida N.ni nasabda U. baxshilarga bog‘lab talqin qilgan, ammo bu ma’lumot o‘z isbotini topmagan.

Ad.: *Алишер Навоий. Вақфия. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

B.R.

“UL PARIVASHKIM, BO‘LUBMEN...” – N.ning “G‘.S.” devonidan o‘rin olgan g‘azali:

Ul parivashkim, bo‘lubmen
zor-u sargardon anga,
Ishqidin olam menga hayron-u men hayron anga.

O‘qlaringdin dam-badam taskin
topar ko‘nglum o‘ti,
Bordurur bir qatra su go‘yoki har paykon anga.

Bir dilovardur ko‘ngulkim, g‘am sipohi qalbida,
Ohi novak, toza dog‘idur qizil qalqon anga.

Novakining parr-u paykonida rangin tus erur
Yoki ko‘nglumdin chu parron
o‘tti yuqmish qon anga,

Nomayishavqumnenav’uloyg‘ayetkay,chunkimen
El otin o‘qur hasaddin yozmadim unvon anga.

Xizri xattingning ajab yo‘q
sabz-u xurram bo‘lmog‘i,
Lab-balab chunkim berur su
chashmayi hayvon anga.

Ey xusho, mug‘ ko‘yikim, rif’at bila ziynatda bor
Mehr anga bir shamsavu
ko‘k toqidur ayvon anga.

Istamish bulbul vafo guldin, magarkim joladin
Bag‘ri qotmish g‘unchaning,
baskim erur xandon anga.

Qilmamish jonin fido jonong‘a etmas der emish,
Ey Navoiy, ushbu so‘z birla fido yuz jon anga.

Ramal bahrining ramali musammani mahzuf vaznida bitilgan to‘qqiz baytdan iborat radifli bu g‘azalda lirik qahramon oshiqning ruhiy kechinmalari ma’shuqa go‘zalligi va fazilatlarining tavsifi b-n uyg‘unlikda bayon etiladi.

Maqta’da esa N. hanuzgacha amalda bo‘lgan xalq maqoliga murojaat etib, irsoli masal san’atining go‘zal namunasini yaratadi:

“Qilmag‘on jonin fido jonong‘a
yetmas”, der emish,
Ey Navoiy, ushbu so‘z birla fido yuz jon anga.

G‘azal, N.ning o‘z guvohligiga ko‘ra, 14 – 15 yoshlaridan oldin yozilgan va she’riyat bilimdonlari, adabiyot muxlislari tomonidan yaxshi kutib olingan, turli yig‘inlarda tez-tez tilga tushgan. Bu haqda N. “H.S.H.A.”da quyidagilarni yozadi: “Tarix sekkiz yuz oltmish erdi (milodiy 1455–56-yy. – A.A.), bu faqir alar (Said Hasan Ardasher) suhbatig‘a musharraf bo‘ldum. Bu faqirni... nazm ayturg‘a targ‘ib ko‘rguzurlar erdi. Chun ul avqotda faqirning nazmlari Xurosonda shuhrat tutub erdi, alar (Said Hasan Ardasher) dog‘i iltifot qilib ba’zi abyotni ko‘p o‘qurlar erdi va majolisda xushvaqt bo‘lurlar erdi. Ul jumladin bu matla’durkim... Yana bir bukim:

Ul parivashkim, bo‘lubmen
zor-u sargardon anga,
Ishqidin olam manga hayron-u
men hamron anga”.

N. ijodida tanosib san’atining keng qo‘llanishi haqida so‘zlagan M.Shayxzoda g‘azalning:

Istamish bulbul vafo guldin, magarkim, jolodin
Bag‘ri qotmish g‘unchaning,
baskim, erur xandon anga,

baytini keltirib, quyidagilarni yozadi:

“Bu bir baytning o‘zida shoir hayotining g‘amli bir manzarasini chizib beradi, guldan vafo kutgan bulbul bechora bilmaydiki, g‘unchaning tabassumi soxtadir, chunki u shudring donalaridan qotib qolgan, – doimo xandon ko‘rinadi. Bu – sevganidan vafo kutgan oshiqning tashqi – yasama noz-u karashmalariga ishonib, o‘zini o‘zi aldaganining ifodasi bo‘lib, badiiy bir lahzaday jilvalanadi. Lavhani kuchaytirish va taassurotni zo‘raytirish maqsadiga tanosib san’ati yaxshi xizmat qiladi. Chunonchi, bulbul va gul bir-biriga “vafo” so‘zi orqali bog‘lanadi. Garchi, vafoning o‘zi aslida bo‘lmasa-da, bulbul uning bo‘lishini kutadi. Jola (shabnam) g‘uncha b-n bog‘lanadi, chunki erta tongda shudringlar g‘unchaga qo‘nib, uni yashnatadi. Xandonlik g‘unchaga xos ko‘rinishdur. Shunday qilib bu baytda bulbul-gul-g‘uncha-shabnam-xanda majoz orqali bir-biri b-n bog‘lanib, tanosib san’atiga chiroyli o‘rnak yaratadi”. G‘azalning beshinchi bayti ham hayotiy mazmun va uning go‘zal ifodasi jihatidan alohida diqqatga sazovor. Unda lirik qahramon qizg‘in his-tuyg‘ulari bayon etilgan nomasining ma’shuqa qo‘liga yetmasligini yengil yumor b-n o‘zicha izohlaydi: el ogoh bo‘lishidan qizg‘anib, sevgi maktubiga ataylab ma’shuqa nomini va turar joyini bitmaydi!

Nomayi shavqum ne nav’ uloyg‘ayetkay, chunki men
El otin o‘qur hasaddin yozmadim unvon anga.

G‘azalning adabiyot muxlislarining o‘zlari tuzgan “Ilk devon”dan o‘rin olishi ham uning keng tarqalganini ko‘rsatadi. N. Uni, avvalo, “B.B.” devoniga kiritadi, “X.M.”ni tuzishda esa “G‘.S.”ga joylashtiradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011.*

Ab.H.

“UL TOJIR HIKOYATI...” – N.ning “S.I.” dostonida “Afv fazilati” (XLV) qismidan keyin keltirilgan 32 baytli hikoyatning sarlavhasi shu so‘zlar b-n boshlanadi. Uning asosiy mavzusi saxiylik, qo‘li ochiqlik, karamning fazilatlari haqida. Hikoya qilinishicha, Adan (Yamanning janubidagi shahar) mulkidan chiqqan yirik bir tujjor savdo-sotiq ishlari b-n tinmasdan turli shaharlarga qatnaydi. U o‘z safarlari davomida sevimli o‘g‘lini hamisha yonida olib boradi. Navbatdagi safarlardan birida tun vaqti ularni qaroqchilar talaydi. Butun tujjorlar to‘rt tomonga qochib ketadi. Savdogarning o‘g‘li asir tushadi. Qaroqchilar uni o‘z saflariga qo‘shilishga majburlashadi.

Qaroqchilardan oltini b-n omon qolgan savdogar – ota esa turli shaharlarni kezib, o‘g‘lini qidiradi. Kunlardan birida bir guruh qo‘li qonga belanib yotgan, o‘limga hukm qilingan bir kimsani ko‘radi va uning kimligini surishtirmay, ming oltin tanga evaziga sotib oladi. Keyin ma’lum bo‘ladiki, u kimsa o‘z o‘g‘li ekan. N. hikoyatni:

Ming oltung‘akim zohir etti karam,
O‘g‘ul topti-yu yuz ming iqbol ham,

deb yakunlaydi.

Bu hikoyatda karam va saxovat uni qiluvchiga, albatta, baxt va yaxshilik olib keladi, degan g‘oya ilgari surilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Бертельс Е.Э. Избранние труды. Суфизм и суфийская литература. – М, 1965.*

S.O‘.

“ULKI, IFLOSDIN AYOG‘INDA...” – N. ning “F.K.” devoniga kiritilgan qit’asi:

Ulki, iflosdin ayog‘inda
Kafsh yo‘l azmi chog‘i yo‘qtur oning.
Shukr qildik boqib birov sori,
Ki yururga ayog‘i yo‘qtur oning.

Ushbu qit’a: “Birni ko‘rib fikr qil, mingni ko‘rub zikr qil!”– degan mohiyatni tasdiqlaydi. Birinchi baytni o‘qishingiz zahoti, yo‘l yurib kelayotgan bir kishini uchratganday bo‘lasiz. Ittifoqo, uning yalang oyoqlari diqqatingizni tortadi: kirlangan, go‘yo “iflosdin” kafsh kiyib olganday. Buni nochorlik, muhtojlik ta’qibi sifatida qabul qilasiz-u, dilingiz achiydi. Keyingi baytni o‘qiysiz: boshqa manzara. “Yururga ayog‘i yo‘q” odam nochor mo‘ltirab turibdi.

Ad.: *Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011; Ҳаққул И. Касби камол ўзни танишдир. – Т., 2021.*

I.H.

ULUMI G‘ARIBA – kishi hayron qoladigan, hayratga tushadigan ilmlar; sehr ilmi; sehrgarlik, sim’yo, jafr (harflarga qarab fol ochish), ramz, folbinlik, kimyogarlik kabilar o‘rta asrlarda U.G‘. deb atalgan. M-n, N. “M.N.” tazkirasida mashhur tariqat shayxi Abulvafo Xorazmiyni barcha zohiriy va botiniy ilmlar bilimdoni sifatida ta’riflar ekan, “ulumi g‘ariba ham bilur erdi, ammo andin zohir bo‘lmas erdi” deb yozadi. Xoja Avhad Mustavfiyning ham U.G‘.dan boxabarligi haqida ma’lumot beradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ҳакимов М. Шарқ манбашунослиги луғати. – Т., 2013.*

E.O.

“ULUG‘ O‘ZBEK SHOIRI” – N. tavalludining 500 yilligiga bag‘ishlab nashr etilgan maqolalar to‘plami. Ilk maqola Y. G‘ulomovning “Alisher Navoiyning davrini o‘rganish haqida” deb nomlanib, unda Amir Temurning markazlashgan qudratli davlat tuzish yo‘lidagi kurashlari (harbiy yurishlari, sarbadorlar va Oltin O‘rda xonlari b-n munosabati), keyingi temuriy hukmdorlar davri-

dagi siyosiy, iqtisodiy sharoit (yerga egalik, soliq tizimi turlari va xarakteri) tahlil qilinib, ayrim fikrlar tanqidiy nuqtayi nazardan baholanadi, shuningdek, Samarqand, Hirotning Ulug‘bek va N. zamonasidagi ma’muriy, madaniy roliga baho berilgan. Navbatdagi maqola muallifi R.N.Nabiyev “XV asrda Movarounnahrning siyosiy-iqtisodiy hayotidan” nomli maqolasida XV asrning II yarmida, ya’ni “Xoja Ahror davrida Turkistonning siyosiy jihatdan og‘ir bir ahvolda ekanligi”, siyosiy hayotda Xoja Ahrorning roli, uning iqtisodiy muhitdagi mavqeyi va madaniy hayotga ta’sirini ko‘rsatishga qaratilgan. Maqola XV asrning II yarmida (ayniqsa, so‘nggi choragida) Xurosonda yuzaga kelgan madaniy hayot va adabiyot sohasidagi taraqqiyot bevosita N. nomi b-n bog‘liq bo‘lsa, Movarounnahrda Ulug‘bek davridagi madaniy an’analarning zaiflashuvi, mamlakatning siyosiy, iqtisodiy jihatdan zaiflashuvida “Xoja Ahrorning alohida o‘rin ishg‘ol qiladi” degan xulosaviy fikr b-n yakunlanadi. Tabiiyki, bunday xarakterdagi maqolalarga tadqiqot yozilgan davrdagi siyosiy-mafkuraviy holatlarni hisobga olgan holda tanqidiy yondashishni talab qiladi.

Yirik rus adabiyotshunosi M.E.Massonning “Hirotning XV asrdagi tarixiy topografiyasiga doir” maqolasi esa A.M.Belenskiyning “Alisher Navoiy” (M.L, 1946) to‘plamidan joy olgan “Hirotning XV asrdagi tarixiy topografiyasi haqida” nomli maqolasiga javoban yozilgan. Uning mohiyati mazkur maqolani turli tarixiy manbalardagi ma’lumotlar b-n qiyosiy tahlil etish asosida Hirot tarixi va topografiyasi b-n aloqador bir qator chalkashliklarga aniqlik kiritishdan iborat.

Akad. V.Abdullayevning “Alisher Samarqandda” nomli maqolasi esa N. hayotining Samarqandda kechgan yillari (1465–1469) haqida bo‘lib, shoirning bu yerga kelish sabablari, XV asrning 60–70-yy.dagi Hirot va Samarqanddagi adabiy-madaniy muhit batafsil tahlil etilgan. Muallif Sharqshunoslikda (Bartold, Sale, Yakubovskiy, O.Sharafiddinov) N.ning Samarqandga ketish sabablari hamda shaharning shu davrdagi madaniy, adabiy muhiti haqida bayon qilingan fikrlarni rad etadi.

V.Zohidov qalamiga mansub “Lison ut-tayr” falsafasi haqida mulohazalar” maqolasida mazkur dostonning falsafiy-g‘oyaviy asoslash va uning Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” asari bilan qiyoslash maqsad qilingan. Attor va N. dostonlari o‘rtasidagi muhim tafovut (birinchi asarda qushlar Alloh bilan birlashib, foniy bo‘ladilar. “L.T”da esa ular qidirgan Simurg‘ o‘zlarida mujassam ekanligini idrok etadilar), shuningdek, bu dostonda Foniy taxallusini qo‘llash sabablari izohlanadi.

M.Shayxzodaning “Navoiyning lirik qahramoni haqida” (G‘aroyib us-sig‘ar” bo‘yicha) nomli maqolasi shoir she’riyatining asos masalasi – uning lirik qahramoni qiyofasini ochib berishga qaratilgan. “X.M.”ga xos barcha muhim xususiyatlar uning ilk devoni – “G‘.S.”da to‘liq namoyon bo‘lgan. Binobarin, undagi barcha xulosalar N. lirikasi u-n taalluqli bo‘lib, muallifga ko‘ra: “Umuman “Chor devon”da bo‘lganiday, “G‘.S.”da ham lirik qahramon N.ning o‘zidir. Bu murakkab bir zamonda yashagan, tushunuvchi, o‘ylovchi, hassos va oliyjanob bir shaxsning boy, serohang, rang-barang, sermazmun, sof ma’naviy, botiniy dunyosini o‘zida gavdalantirgan bir qahramondir”. Zero, maqolada, asosan, lirik qahramon – oshiq xarakteri, ishqning mohiyati tasavvuf falsafasi b-n bog‘liq holda tahlil qilinadi.

To‘plamdagi yirik ishlardan biri Hodi Zarif qalamiga mansub “Lutfiy va Navoiy” maqolasi bo‘lib, ishning mazmuni uning sarlavhasiga nisbatan ancha keng: N.gacha bo‘lgan o‘zbek adabiyotining rivojlanish yo‘llari, N.ning atoqli salaflari, “Malik-ul kalom” Lutfiyning hayoti va ijodiy biografiyasi, uning forsiy she’riyatga munosabati, Lutfiy va N. singari masalalar ancha batafsil tahlil qilingan.

Atoqli adib Sadriddin Ayniy ham “Alisher Navoiy va tojik adabiyoti” nomli maqola b-n ishtirok etgan. Muallifning muqaddimadagi quyidagi fikrlari maqolaning umumiy yo‘nalishini belgilaydi. “Har bir xalqqa teng ko‘z bilan qarovchi insonparvar buyuk N.ning fors-tojik adabiyoti ravnaqi yo‘lidagi xizmatlari har taraflamadir.

U, bir tomondan, o‘zi forscha-tojikcha she’rlar – g‘azallar, qasidalar, qit’alar, ruboiylar, fardlar va muammolar yozgan bo‘lsa, 2-tomondan forstojik adabiyotiga oid ilmiy asarlar ham maydonga keltirgan. Bulardan boshqa tojik yozuvchilari, olimlari va san’atkorlari taraqqiyoti uchun, o‘sha davr tojik adabiy tilida ilmiy va badiiy ko‘p asarlarning vujudga kelishida ham moddiy va ma’naviy katta yordamlar qilgan”. Maqola ichida yana “Alisher Navoiyning tojikcha taxallusi”, “Alisherning tojikcha devoni”, “Mufradot”, “Alisherning tojik tilda yozgan asarlari”, “U zamondagi ijodchi tojik yoshlarining o‘sishiga Alisherning yordami”, “Alisherning tojikcha adabiy merosi” singari kichik sarlavhalar qo‘yilgan. Ayniy domla o‘z maqolasida qo‘lyozma bayozlarda uchraydigan “Navoiy” taxallusli she’rlarni ham N. she’rlari deb hisoblab, munozarali fikrni o‘rtaga tashlaydi.

To‘plam Y.G‘.G‘ulomovning “XV asrda binolar ansamblining traditsiyasi haqida” deb nomlangan maqolasi b-n yakunlangan. Maqolada tadqiqotchilar e’tiboridan chetda qolgan Maleho Samarqandiyning “Muzakkir ul-ashob” (1691–1692) tazkirasida keltirilgan ma’lumot asosida Go‘ri Amir mavzoleyi doirasidagi arxitektura ansamblining haqiqiy holati (mavzoley, madrasa va honaqoh) aniq tasvirlanadi. Bu ansamblning tuzilishi o‘sha davrdagi mavjud an’analar b-n bevosita aloqador ekanligi izohlanib, Shahrisabz va N. tomonidan Hirotda qurdirilgan ansambllarning ham mazkur an’analar b-n uzviy bog‘liqligi isbot etiladi. Zero, ushbu to‘plam n. shunoslik tarixining muayyan bosqichi haqida tasavvur hosil qiluvchi e’tiborli manbadir.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Улуғ ўзбек шоири. Масъул муҳаррир М.Т.Ойбек. – Т., 1948.*

S.O‘.

ULUG‘BEK (Mirzo Ulug‘-bek) (1393, Sultoniya – 1449, Samarqand) – temuriy hukmdor, buyuk astronom, jahon ilm-faniga ulkan hissa qo‘shgan o‘zbek olimi. 1409–1449-yy.da taxtda o‘tirgan. O‘g‘li Abdullatif tomonidan o‘ldirilgan. N. U. mirzo shaxsiyati, ijodiy va ilmiy merosiga katta hurmat b-n qaragan. U. mirzo haqida u o‘zining ikki asarida – “M.N.” tazkirasi hamda “F.Sh.” dostonida so‘z yuritgan. Tazkirada u mirzoning boshqa temuriy ijodkorlar b-n bir qatorda – yettinchi majlisda zikr etgan. Bu o‘rinda bitilgan so‘zlar U. mirzo siymosini o‘quvchi ko‘z o‘ngida nihoyatda donishmand, astronomiya va matematika fanlarining bilimdoni, observatoriya qurgan va yulduzlar jadvalini tuzgan ulug‘ olim sifatida gavdalantiradi. N. uning shuncha mashg‘ulot orasida she’rlar ham yozib turganini qayd etadi va bir matla’sini misol tariqasida keltiradi.

“F.Sh.” dostonining shahzoda Shohg‘arib mirzoga nasihat sifatida bitilgan ellik uchinchi bobida ham U. siymosi va faoliyati bir qator baytlarda o‘zining badiiy talqinini topgan. Shahzodani ilm egallashga targ‘ib etar ekan, N. bunda U. mirzoni misol qiladi. Ilm egallagan, ilmda kashfiyotlar qilgan kishining nomi abadiy qolishi, insonlar uni hech qachon unutmasliklari, U. mirzo xuddi ana shunday inson bo‘lgani, shu sababli uning qarindosh-urug‘lari unutilib ketgan bo‘lsa-da, uning xotirasi yashayotgani va to qiyomatgacha insonlar uning asarlaridan foydalanishlarini go‘zal, ravon badiiy misralarda shoir shunday ifodalaydi:

Temurxon naslidin Sulton Ulug‘bek,
Ki olam ko‘rmadi sulton aningdek.

Aning abnoyi jinsi bo‘ldi barbod,
Ki davr ahli biridin aylamas yod.

Vale ul ilm sori topti chun dast
Ko‘zi ollinda bo‘ldi osmon past.

Rasadkim bog‘lamish zebi jahondur.
Jahon ichra yana bir osmondur.

Bilib bu nav’ ilmi osmoniy,
Ki ondin yozdi “Ziji Ko‘ragoniy”.

Qiyomatg‘a degincha ahli ayyom,
Yozarlar aning ahkomidin ahkom.

Mirzo Ulug‘bek nomi “M.N.”da mavlono Muhammad Olim, Mavlono Badaxshiy singari shoirlarga bag‘ishlangan qismlarda ham tilga olingan. Mavlono Muhammad Olim zikrida uning U. mirzo b-n hamsaboq bo‘lgani aytilsa, Mavlono Badaxshiy zikrida bu shoirning U. davrida mashhur bo‘lgani va mirzo ham unga iltifot ko‘rsatgani qayd etilgan. “M.” asarida Badiuzzamon mirzoga yo‘llagan maktubda N. ota-o‘g‘il munosabatlari haqida so‘z yuritib, Badiuzzamonga nasihat qilar ekan, U. va Abdullatif orasida bo‘lgan voqeaga ham ishora qilib o‘tadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

Q.E.

ULUG‘BEK RASADXONASI – XV asr me’morchiligining noyob namunasi, ko‘hna astronomik kuzatuv muassasasi. Buyuk ilmi nujum va riyoziyot olimi, davlat arbobi Ulug‘bek Mirzo – Muhammad Tarag‘ay (1394, Sultoniya – 1449, Samarqand) farmoyishi bilan 1428/29-y.da Samarqandning Ko‘hak (Cho‘ponota) tepaligida ulkan silindr shaklida bunyod etilgan.

Boburning yozishicha, U.R.ning sirti koshin va sirli parchinlar b-n bezatilgan. Rasadxona ichiga o‘rnatilgan juda katta asbob yordamida Quyosh, Oy, sayyora va yulduzlar katta aniqlik b-n o‘rganilgan. Rasadxonada kutubxona ham bo‘lgan. Ichki devorda osmon tasviri, yulduzlar xaritasi, tog‘, dengiz, mamlakatlar belgilangan. Yer shari tasviri ishlangan. N. “M.N.”da Mirzo Ulug‘bek.. haqida *“...zij bitidi va rasad bog‘ladi va holo aning ziji oroda shoye’dur”*, – deydi. “F.Sh.” dostonida esa Ulug‘bek Mirzo hamda u bino qilgan rasadxona xususida:

Rasadkim bog‘lamish zebi jahondur,
Jahon ichra yana bir osmondur,

– deya yuksak faxr va g‘urur b-n tilga oladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 1989; Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. – Т., 2008; Мамадазимов М. Улуғбек ва унинг расадхонаси. – Т., 1994; ЎзМЭ. 9. – Т., 2005.*

E.Q.

ULFAT (taxallusi; to‘liq ismi: Imodiddin Qosimov) (1906–1989, Andijon) – shoir, tarjimon. Andijon shahrining Jalabek mahallasi Ostona guzarida maktabdor oilasida tavallud topgan. Boshlang‘ich savodni otasidan olgan. Imodiddin adabiyotga qiziqishi tufayli yoshligidan N., Fuzuliy, Furqat va Muqimiy asarlarini sevib o‘qiydi. Chuqur masjid madrasasidagi Abdulmajid qozi Hofiz huzurida xattotlik, arab tili grammatikasi b-n birgalikda Sa’diyning “Guliston”, N.ning “Xamsa”, Jomiy, Hofiz va Sa’diy asaridan saboq oladi. Ustozidan Sharq she’riyatining nazariy masalalari va amaliy jihatlarini qunt b-n o‘rganadi. Bundan tashqari Qur’oni Karimni to‘la yod olgan.

1938-y.da buyuk o‘zbek mutafakkiri N. tavalludining 500 yilliligini o‘tkazish va unga tayyorgarlik ko‘rish to‘g‘risida hukumat qarori chiqadi. Shu munosabat b-n Toshkentda “Navoiy yubiley komiteti” tuziladi. Unga she’riyat bilimdonlari, N. ijodidan yaxshi xabardor bo‘lgan, hamda arab-fors tillarini biluvchi kishilar jalb qilinadi. G‘.G‘ulom tavsiyasiga ko‘ra, Andijondan Habibiy, Anisiy, Mahjuriylar qatori U. ham Tosh-

kentga chaqiriladi. 1938–40-yy.da mazkur qo‘mitaning tekstologiya komissiyasida N. asarlari matnini nashrga tayyorlashda ishtirok etadi. U. ayni paytda, qo‘mita hisobchisi vazifasini ham bajargan. U. qo‘mitada asosan, N. asarlari u-n lug‘at tuzishda hamda “Chor devon” va “Farhod va Shirin”ni nashrga tayyorlashda ishtirok etadi. Navoiy yubiley qo‘mitasidagi ilmiy-adabiy muhit, olimlar va shoirlar davrasidagi bahslar, suhbatlar, munozaralar, ulug‘ shoir asarlarining asl matnlari bo‘yicha fikr-mulohazalar va mustaqil ijodiy tadqiqotlar U. hayotida taassurotlarga boy, uning badiiy tafakkurida kelajakda burilish hosil qiladigan darajada muhim davr bo‘ldi. Bu haqda uning o‘zi shunday yozadi:

Kamtarin shogird bo‘lib qildim Alisher xizmatin,
Barkamollik yo‘llarin ko‘rsatdi bu xizmat menga.

“Bayoni hol” she’rida Navoiy qo‘mitasida kimlar b-n ishlagani haqida ham ma’lumot beradi.

Yig‘ilgan u joyda bilim konlari,
Suxan ilmining ko‘p bilimdonlari.

Biri Sayidolim Sharafzoda nom,
Adab ilmida sohibi ehtirom.

Biri erdi Bokiy – so‘z ustozi ul,
Suxansozlig‘ bazmining sozi ul.

Habibiy-u Mahjur, Anisiy baham,
Ular birla men ham bo‘lib hamqadam.

1939-y.gacha Hoib (ma’nosi “qo‘rquvchi”, “hurmat qiluvchi”) taxallusida ijod qilgan shoir, G‘.G‘ulom tavsiyasiga ko‘ra o‘ziga U. taxallusini oladi.

Sharq mumtoz adabiyotining bilimdoni sifatida U. Abdurahmon Jomiy (1965), Gulxaniy, Nosir Buxoriy va Pahlavon Mahmud (1979) kabi bir qancha mutafakkir va shoirlarning asarlarini tarjima va targ‘ib etishda ishtirok etdi. Uvaysiyning devonini nashrga tayyorlashga ko‘maklashadi (1963).

N.ning “O‘zgacha”, “Menga”, “Qilib”, “Abas”, “Talx”, “Ehtiyoj”, “Hanuz”, “Emas”, “Xalos”, “G‘araz”, “Tama’” radifli g‘azallariga tatabbu’ qiladi, “Aylagach”, “Qil” radifli g‘azallariga taxmis bog‘laydi. Jumladan, N.ning mashhur “Aylagach” radifli g‘azaliga bog‘lagan taxmisi uning aruz qonun-qoidalarini yaxshi bilishi, mumtoz she’riyatning timsol-u tashbehlar olamidan yaxshi xabardorligi, qalami ravonligi, badiiy tafakkuri teranligidan dalolat beradi:

To aning husnin tomoshosida bo‘ldim dardnok,
Tutmadi jonimga qasd etmoqdan ul jallod bok,
G‘amzasin tig‘i bila ko‘ksimni aylab chok-chok,
Jong‘a qo‘ygach naqdi ishqing qildi ko‘nglumni halok,
O‘ltirur mahramni sulton ganj pinhon aylagach.

“Qil” radifli g‘azalga taxmisi ham uning muxammasnavislik mahoratini yaxshi egallaganligi va buyuk salaf g‘azallarida ifodalangan fikr-u tashbehlarni rivojlantirganligi va boyitganligi, ularning yangidan-yangi qirralarini ochganligi b-n badiiy barkamollik kasb etadi:

Topgali yog‘lig‘ bila dargohida qurbat anga,
Qancha-qancha sarf etib mehnat bila diqqat anga,
Naqshlar aylab ajoyib, bergali ziynat anga,
Gar desang har yon qizil guldin beray nusxat anga,
Ko‘ksim ochib, toza qonlig‘ dog‘i hijronimni qil.

U.ning “Tama’” radifli g‘azalidagi:

Kimki boriga qanoat etdi, ul bo‘ldi aziz,
Bu erur hikmatli so‘zkim, xor etar ammo tama’, –

bayti N.ning:

Elni xor aylagan tama’ bilgil,
Doimo “azza man qana’” bilgil, –

fardiga hamohang jaranglaydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011;*

Улфат. Зебо санам. – Т., 1983; Улфат. Гулбоғ. – Т., 1988; Улфат. Девон. – Т., 2008.

E.O., Z.R.

UMAR AMIR UL-MO‘MININ (Umar ibn Xattob, 644-y.da o‘ldirilgan) – Payg‘ambar (s.a.v.) to‘rt yorining ikkinchisi. 634–644-yy.da xalifa bo‘lgan. Xalifalikda davlat boshqaruvi tizimining shakllanishi va rivojlantirilishi uning nomi b-n bog‘liq. U.A.M. (r.a.)ning xalifaligi davrida amalga oshirilgan muhim ishlardan biri hijriy yil hisobiga o‘tilishi edi. Bundan tashqari ushbu yillarda musulmonlar davlatining kuch-qudrati oshgan va hududlari kengaytirilgan. 635-y.da Damashq egallangan. 638-y.da Quddus shahri qo‘lga kiritildi. 642-y.da Nihovand shahri yaqinida sosoniylar qo‘shini mag‘lubiyatga uchratildi. U.A.M. (r.a.) 644-y.da suiqasd natijasida o‘ldirilgan.

N. “L.T.” dostonining 7-bobini unga bag‘ishlagan. Bobga “Amir ul-mo‘minin Umari Foruq raziyallohu anhu vasfida” deb sarlavha qo‘yilgan. Unda N. U.A.M. (r.a.)ning Payg‘ambar (s.a.v.) ishining davomchisi ekanligini ta’kidlaydi. Uning insoniy sifatlarini, shu jumladan, odilligini, saxiyligini vasf etadi. N. tasvirida U.A.M. (r.a.) yuksak fazilatlarni o‘zida jalb etgan shaxs sifatida gavdalanadi. Xalifa bo‘lishiga qaramay, u kirpich (g‘isht) quyish b-n shug‘ullanadi va shu ish yordamida tirikchilik qiladi:

Xoni bazmiddin jahon ahli to‘yub,
Ul o‘zin to‘yg‘or g‘ali kirpich quyub.

N. shuningdek, uning davrida Ajam mamlakati fath etilganini ham aytib o‘tadi:

Fath o‘lub davronida mulki Ajam,
Ul bilod uzra arab tortib alam.

Mazkur dostonning 8-bobi Amir ul-mo‘minin haqidagi hikoyatdan iborat. Uning mazmuni quyidagicha: Madoyin (Ajam poytaxti) bosib olingan paytda musulmonlar qo‘liga juda ko‘p boyliklar tushgan. Bu Ajam shohlarining bir necha yuz yillar davomida mashaqqat b-n to‘plagan xazinasi edi. Uning barchasini yuklab, U.A.M. (r.a.) huzuriga olib keladilar. U xazinaga ko‘z qirini ham tashlamaydi va hammasini baytulmolga (davlat hisobiga) o‘tkazishni buyuradi. Xalifa U.A.M. ning nomi N.ning “Xam.M.” asarida ham tilga olingan. Unda N. Abdurahmon Jomiyning ajdodi Hurmuz Shayboniyning Xalifa U.A.M. (r.a.) tomonidan islomga kiritilgani haqida yozadi: “Hurmuz bani Shaybon qabilasining maliki ermishkim, Bag‘dodda saltanat qilibdur va johiliyat zamonida Amir ul-mo‘minin Umar (r.a.) xalifaning ilgida islom sharafig‘a musharraf bo‘libtur”.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамсат ул-мутаҳаййирин. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ирмияева Т.Ю. Истроия мусулманского мира от халифата до блистательной Порты. Изд. “Урал ЛТД”, 2000.*

Q.E.

UMAR BOQIY – shoir va yozuvchi (XVIII asr oxiri XIX asr boshlari). Xorazm xoni Avazbiy Inoq saroyida xizmat qilgan. Xonning buyrug‘iga ko‘ra N.ning “X.” dostonlaridan “F.Sh.”, “L.M.”-ning o‘zlashtirma nasriy bayonlarini yaratgan. Dostonlarni sodda, xalqona uslubda nasr va nazm aralash nasriy bayon qilgan. Nasriy bayonga kiritilgan she’riy parchalar U.B. qalamiga mansub.

Mazkur nasriy bayonlar XIX asrdan XX asr boshlarigacha bo‘lgan vaqt mobaynida oddiy xalq orasida N. asarlariga bo‘lgan ehtiyojni qondirish u-n xizmat qilgan. Kitobxonlar talabiga ko‘ra, XX asr boshlarida toshbosma matbaalarda 1908, 1909, 1910, 1912, 1915-yy.da qayta-qayta nashr etilgan. Nasriy bayonlarning nashrga tayyorlanib, chop etilishida Xislatning sa’y-harakatlari alohida e’tiborga molik. Xislat tahrir qilib nashrga tayyorlagani u-n uning o‘qimishli bo‘lishiga alohida ahamiyat bergan. Nasriy bayonlarni Sidqiy Xondayliqiy ko‘chirgan va Shavkat Iskandariy

taxallusi bilan “Qissayi Farhod va Shirin”ga 12 ta, “Kitobi Layli va Majnun”ga 11ta surat ishlagan. Keyinroq kitob tojiri Muhammad Rahim Mirzakarimboy o‘g‘li tomonidan ham nashr qilingan.

Mazkur nasriy bayonlar “Xamsa” dostonlarining o‘zbek adabiyotidagi ilk nasriy talqinlari sifatida A.Fitrat, M.Afzalov, N.Mallayev, S.Erkinov, A.Erkinov, A.Hayitov tomonidan atroflicha tadqiq etilgan.

U.B. dostonlarni bayon qilish davomida muqaddima va xotima boblarni qoldirib, asosiy voqealar rivojini oladi. Nasriy bayon rejasiga kiritilgan boblarni yaxlitlashtirish yo‘lidan boradi, nasriy sarlavhalarni ham qisqartiradi. Asosiy mazmunning olingani unda qisqartirishlar miqdorining ko‘pligini bildiradi.

Ad.: *Маллаев Н. Алишер Навоий ва халқ ижодиёти. – Т., 1974; Эркинов С. Наср ва халқчиллик тенденциялари // XVII асрдан XIX асрнинг II ярмигача, Умар Боқий ва Маҳзун // Ўзбек насри тарихидан. – Т., 1982; Эркинов С. Шарқ адабиётида Фарҳод қиссаси. – Т., 1985.*

O.T.



UMAR XAYYOM – fors-tojik shoiri, faylasuf, riyoziyotshunos, munajjim (to‘liq ismi G‘iyosiddin Abdulfath Umar ibn Ibrohim) (1040–1123 Nishopur). Riyoziyot bo‘yicha “Risola filbarohayn alo masoyil al – jabr val – muqobala” (“Algebra va al-muqobala isbotlari haqida risola”), handasaga oid “Risola fi sharx mo ashqol min musodiroti kitobi Uqlidis” (“Evklid prinsiplarining qiyin joylari haqida risola”), falsafaga doir “Risolat ul-kavn vat-taklif” (“Koinot va uning vazifalari haqida risola”), “Risola fil – vujud” (“Borliq haqida risola”), “Risola fi kulliyoti vujud” (“Borliqning umumiyligi haqida risola”) kabi asarlar muallifi. U.X. ruboiylari b-n mashhur bo‘ldi, uning asarlari Yevropa tillarining ko‘piga tarjima qilindi. U.X. ruboiylari asosida hayot, tabiat, dunyoning abadiyligi, moddaning doim harakatda bo‘lib, turli o‘zgarishlarga uchrashi haqidagi falsafiy fikrlar yotadi. Ruboiylarda hayot go‘zalligi rang-barang shaklda yuksak she’riy hissiyot ifodalangan.

U.X. nomi N.ning hech bir asarida qayd etilmagan. Lekin bu ulug‘ shoirning U.X.ni bilmaydi, uning asarlarini o‘qimagan, deyishga huquq bermaydi. M-n, “D.F.”da Jomiy g‘azaliga tatabbu’ sifatida “Yo, Rab, chi baloest, ki on sho‘xi qadahno‘sh...” deb boshlanuvchi g‘azal mavjud. Bu g‘azalning maqta’si esa quyidagicha:

Foniy, agarat da’viyi oyini fano hast,
Az rafta taassuf maxo‘r, az nomada
maxo‘ro‘sh”.

Tarj.: Foniy, agar senda foniylik rasmining da’vosi bo‘lsa, “O‘tgan (kun) ga afsus chekib, ertaning tashvishini qilma”.

Bu baytning ikkinchi misrasi U.X. ruboiysidan tazmin yo‘li keltirilgan. Binobarin, U.X. ning hayotga erksevarlik ruhida qarashi N.ga katta zavq bag‘ishlagan va undan ijodiy foydalangan. Xususan, U.X.ning tabiatni ulug‘lash, ardoqlash, hayotning doimiyligi haqidagi fikrlari N.ga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. U.X. bir ruboiysida yozadi:

Ariq labidagi har giyoh, ko‘kat
Malakday go‘zalning yuzidagi xat.
Bu sabza – loladek yuzlar tuprog‘i,
Sabzaga avaylab oyoq qo‘y g‘oyat.

Shunga o‘xshash chuqur falsafiy ma’nodagi satrlarni N. g‘azallarida ham uchratamiz.

Voqif ul, ey bog‘bonkim, har taraf gul shaklidin –
Sendek elning qabridurkim, zohir etmush bu chaman.

N. ko‘p va go‘zal ruboiylar yozgan. U.X. N.ning fors tilidagi she’rlariga hamda uning ruboiychiligiga samarali ta’sir ko‘rsatgan, deyish mumkin. Ayniqsa, ayrim fikr doirasi o‘ta tor,

shuningdek, ikkiyuzlamachi, riyokor kimsalarni ayamay fosh qilishda N. U.X.ga xos jur'atkorlik bilan qalam tebratdi. N.ning shu mavzudagi:

Zohid, sanga hur-u manga jonona kerak,
Jannat sanga bo'lsin, manga mayxona kerak.
Mayxona aro soqiy-u paymona kerak,
Paymona necha bo'lsa, to'la yona kerak –

kabi ruboiylari ma'no jihatidangina emas, she'r tuzilishining puxtaligi jihatidan ham U.X. an'analarining chinakam davomi va rivojidir. N. ijodidagi falsafiy quyma iboralarni U.X. she'riyatining hayotbaxsh an'analarisiz ilmiy izohlash qiyin.

Ad.: *Рубоийлар. – T., 1970; Шомуҳамедов А.Ш. Традиция татаббуъ в творчестве Алишера Навои. – T., 1984.*

Ab.H.

UMAROV Ergash (1940) – f.f. d-ri. 1968-y. "Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" asarlarida frazeologizmlar" mavzusida nomzodlik, 1989-y. "Badoye' ul-lug'at" va "Sangloh" – mumtoz o'zbek tili bo'yicha muhim manba" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan. Nomzodlik dissertatsiyasida N.ning frazeologizmlardan foydalanish mahorati ko'rsatib berilgan. Ushbu dissertatsiyaga ilova sifatida keltirilgan frazeologik lug'at 1970-y.da kitob holida chop etilgan. Doktorlik dissertatsiyasi "Sangloh" va "Badoye ul-lug'at"ni tahlil qilish natijasida XV va XVIII asrda qo'llangan unli va undosh tovushlari haqida ma'lumotlar berilgan. Olim o'z ishida mumtoz o'zbek tili unlilari uchun Yevropa turkshunoslari ta'kidlaganidek, qattiq-yumshoqlik emas, balki uzun-qisqalik xosligini aniqlagan.

Ad.: *Фразеологический словарь "Хазоин-ул-маоний" Алишера Навои. – T., 1970; Словари староузбекского языка и вопросы фонетики. – T., 1994.*

S.O'.

UMAROVA Nargiza – (1971, Farg'ona). F.f.n., dotsent. "Alisher Navoiy g'azallari maqta'sida sabab va oqibat munosabatining ifodalanishi" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasi yoqlagan. Olima "X.M." devonidagi g'azallar maqta'sini tahlil qilar ekan, sabab ergash gapli qo'shma gap komponentlarini bog'lashda *chu, chun, chunki* kabi bog'lovchilar faol ishlatilganligini ta'kidlaydi. Ishda *-ki, -kim* ergashtiruvchi bog'lovchilar ham sabab ergash gapli qo'shma gap komponentlarini bog'lashi ko'rsatilgan. U.N.ning ta'kidlashicha, N.da sabab ergash gapli qo'shma gaplarning bosh gapi birinchi misrada bo'ladi. shoir g'azallarida maqta'larni shakllantiruvchi bog'lovchisiz qo'shma gaplar sabab ergash gapli qo'shma gaplarga sinonim bo'lganda, uning tarkibidagi birinchi sodda gap sabab mazmunini, ikkinchi sodda gap esa oqibat mazmunini anglatadi. G'azallarda maqta'lar kesimi shart maylidagi ergash gapli qo'shma gaplardan tarkib topadi. Bunday maqta'larda ergash gap birinchi misrada, bosh gap ikkinchi misrada bo'ladi. N. g'azallari maqta'sida keltirilgan o'xshatishlar, asosan, ergash gapli qo'shma gaplar ko'rinishida uchraydi. Shoir o'xshatish ergash gapli qo'shma gaplardan keng foydalangan. O'xshatish ergash gapli qo'shma gaplar *go'yo, o'ylakim, bo'ylakim, bo'yla, yanglig', kibi, o'xshash* kabi yordamchi so'zlar vositasida shakllanadi.

Ad.: *Алишер Навоий ғазаллари мақтаъсида сабаб ва оқибат муносабатининг ифодаланиши. Ф.ф.н. дисс. Автореф. – T., 2005.*

E.U.

UMMUL-KITOB – kitoblar kitobi, kitoblar asosi, javhari, kitoblar onasi. Irfoniy adabiyotda oriflar va ishq ahli Qur'oni Karimni U. deya tavsiflashgani yoritilgan. Shuningdek, aqli avval, nafsi kulliya, komil inson, Lavhi mahfuz va ilohiy taqdir ham ko'zda tutilgan. N. "H.A." dostonining XXII "Avvalg'i maqolat" faslida iymonni sharhlar ekan, Qur'oni Karimni U. deya sharaflaydi:

Bal eti obo munga ummul-kitob,
Sab'i masoniy topib aydin xitob.

Sab'i masoniy neki, har surasi,
Davlat-u din xittayi ma'murasi.

Boshida har surasi tazhib ila,
Dargahi koshiy anga tartib ila,

Bog' anga har safhayi gulshan misol,
Jadvali atrofida ravshan zulol.

Bog' dema, balki falak, ne falak,
Satrlari har sori saf-saf malak...

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Сажжодий Ж. Фарҳанги истилоҳот ва таъбироти ирфоний. –Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.); Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005.*

M.A.

UMMI MUHAMMADIYA – Islom olamida mashhur bo'lgan Shayx Abu Abdulloh Xafifning volidasi. N. "N.M." asarida U.M. ona haqida ajoyib bir syujetga asoslangan lavhani kitobxonga havola qiladi. "O'g'li Abu Abdulloh b. Xafif bila bahr yo'lidin Hajga bordi. Va anga mukoshafot-u mujohadod ko'p ekandur. Derlarki, Shayx Ramazonning so'nggi ushrida eh'yo qilur erdiki, Laylat ul-qadrg'a musharraf bo'lg'ay. Tomg'a chiqib erdi va namoz qilur erdi. Va onasi Ummi Muhammadiya uy ichida, Haq subhonahu taolog'a mutavajjih o'lturub erdi. Nogoh "Laylat ul-qadr" anvori anga zohir bo'la boshladi. Un chiqardiki: "Ey Muhammad, ey farzand, ulcha sen anda tilaysen, mundadur!" Shayx tushti va anvorni ko'rdi. Va onasi ayog'ig'a tushti, andin so'ng Shayx aytur erdiki, ul vaqtdin so'ngra onam qadrin bildim" .

Shayx Abu Abdulloh Xafif osmon ostida, to'rt tomoni ochiq tom ustida Qur'oni Karim nozil bo'lgan fazilatli kechaning ibodatini qilsa-da, nima u-n Nur o'zini unga ko'rsatmaydi-yu, uy ichida o'tirgan onasiga o'zini oshkor qildi, uni izlab topdi. Shu damda ham ona xayr va barokat kechasining manfaatlarini o'g'liga ilinar ekan: "Ey Muhammad, ey farzand, ulcha sen anda tilaysen, mundadir!" – deb chaqiradi. Bu chaqiriqda onaning o'g'li uchun ajib bir ta'sirli – "boshqa bunday qilinmasin" – nasihati, tanbehi ham bor. Bu holat onaning ichki portretini ham ko'rsatadi. Bu xalq orasida mavjud bo'lgan ota-ona hurmatini saqlashning bir odobi, ya'ni ular o'tirgan uyning tomi ustida o'tirmaslik haqidagi o'gitdir. O'g'li namoz o'qib, chiroyli suratda ibodat qilishga intilsa-da, odobida onaga nisbatan hamdardlik, hamsuhbatlik yaxshi sur'atda kechmaydi. Shayxning ichki portreti "onam qadrin bildim" degan tavba-yu iqrorida ochiladi. Bu b-n N. o'zini, kitobxonni dunyoda onani rozi qilishdek maqbul va marg'ub amal, ibodat yo'qligiga yana bir bor ishontiradi.

Voqealar rivojida ona va o'g'ilga qiyosiy xarakteristika berishda, niyat, fikr, ibodatlarini anglashda antiteza usuli ochiq, yashirin shaklda qo'llangan. Bir tomondan, xotimada, ona-bola topgan omonlik, salomatlik, tinchlik ko'rsatilsa, ikkinchi tomondan esa, Qadr kechasi bir kechadir, lekin ming oydan yaxshiroqdir, hikmati yashirin talmeh vositasida eslatiladi. Uchinchidan esa, bu kechada farzandning ona qadrini tushunishi barobarida o'zini anglash baxtiga muyassar bo'lganligi Shayxni ham, onani ham, kitobxonni ham birdek quvontiradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

B.R.

UMMAHONIY – Muhammad (s.a.v.)ning ammasi, ya'ni amakisi Abu Tolibning qizi, sahobalardan biri. N. "X."da esga olgan tarixiy shaxs, sahoba ayol obrazi. Sharq adabiyotida yaratilgan "Me'rojnoma"larda va shoirlarning asarlari tarkibida yozilgan Me'roj b-n bog'liq fasl, bob va tasvir, tavsiflarda yuksak ehtirom b-n tilga olinadi. Ushbu ilhomiy, irfoniy ohangga yo'g'rilgan mashhur xabar to'g'risida N. "L.M."ning Me'roj shomi visolini poetik talqin qilib bitgan IV bobida, "F.Sh."ining Buroqni tavsiflab yozgan V bobida,

“S.S.”ning “Me’roj” kechasi tavsifi b-n bog‘liq IV bobida, “S.I.”ning “Me’roj” shabistoni tarannum qilingan IV bobida U.ning sharafli nomini bir, ikki bayt doirasida yodga olganini ko‘ramiz.

“L.M.”ning Me’roj shomi visolini talqin qilib bitgan IV bobida U. haqida shunday baytlarni o‘qiymiz va uning atoqli nomi qofiyada tushganidan voqif bo‘lamiz:

Tun o‘ylaki, mehri osmoniy,
Olam elidin bo‘lub nihoniy.

Bir xobgahi nihoni ichra,
Manzilgahi Ummahoniy ichra.

Yoki “S.S.”ning “Ul musofiri bavodiypaymo, balki ul rokibi samovatpaymo Me’roji kechasining ta’rifikim...” nomli IV bobini o‘qisak. N. ushbu bob avvalida Me’rojga tuniga o‘zining qanday tayyorgarlik ko‘rgani haqida to‘lqinlanib, ta’sirli baytlar bitgan:

Dud yo‘q, ud-u mushk bila buxur,
Tun dimog‘i isi bilan masrur.

Charx mijmar yoyib bu dud uzra,
Atri mushk-u buxur ud uzra.

Charxi atlaski bu riyoh topib,
Atlasin buyla mijmar uzra yopib.

N. bu nurli oqshomda Muhammad (s.a.v.) ning botiniy va zohiriy holati to‘g‘risida hayajon b-n *Ko‘ngli uyg‘og‘-u ko‘zi uyquda* deb tasvirlagan:

Buyla tun mahi muniri jahon,
Ummahoniy uyida erdi nihon.

Dahr sho‘r-u sharidin osuda,
Ko‘ngli uyg‘og‘-u ko‘zi uyquda.

“S.S.”da gapirilgan Me’roj tuni voqealarining tasvir bayoni “X.”ning boshqa dostonlariga nisbatan ancha batafsil tasvirlangan. Ulug‘ shoir yashirin talmeh san’ati bilan Muhammad (s.a.v.)ning zolimlar zulmi va dushmanlar makri, fitnasidan qochib, ammasi uyida yashiringanini ham aytishga harakat qilgan.

“S.I.”ning ham “Me’roj” shabistoni tarannum qilingan IV bobida N. bizni U. hujrasiga boshlaydi. Chunonchi:

Bu yanglig‘ kecha ul chirog‘i sipehr,
Yuzi toza gulbargi bog‘i sipehr.

Quyoshdek ulusdin nihoniy bo‘lib.
Yeri hujrayi Ummahoniy bo‘lib.

Muhammad (s.a.v.)ning ammasi, ya’ni amakisi Abu Tolibning qizi, sahobalardan biri. N. “X.”da esga olgan tarixiy shaxs, sahoba ayol obrazi. Sharq adabiyotida yaratilgan “Me’rojnoma”larda va shoirlarning asarlari tarkibida yozilgan Me’roj b-n bog‘liq fasl, bob va tasvir, tavsiflarda yuksak ehtirom bilan tilga olinadi. Ishonchli manbalarda aytilishicha, Muhammad (s.a.v.) Meroj kechasi U.ning uyida mehmon bo‘lgan ekan. Mazkur xabar to‘g‘risida N. “F.Sh.”ning V bobida uning sharafli nomini quyidagi baytda yodga olgan:

Bu oqshom ul charog‘i olamafro‘z,
Ichinda vasli sham’i o‘tidin so‘z.

Solib bir go‘shaga partav nihoni,
Kim, aylab mezbonlig‘ Ummi Honiy.

Adib Burxoniddin Rabg‘uziy “Qisasi Rabg‘uziy” asarida va Bobur “Mubayyin” asarining “Me’roj sifatig‘a ishorat” nomli faslida ham U. haqida lavhalar yozgan.

Ad.: *Алишер Навоий. “Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Носируддин Бурҳонуддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. – Т., 1991; Бобур. Мубаййин. – Т., 2014.*

B.R.

UMMULXAYR ONA – N.ning “N.M.” asarida tilga olingan onalardan biri. Shayx Abdulqodir Jiliy b-n bog‘liq ma’lumotda “faqat va faqat rostlikni deysan”, “har qanday holatda rostlik, to‘g‘rilik yo‘lin tutasan”, deb o‘g‘lidan ahd olgan U. ona obrazi tasvirlanadi. “...Onam qoshig‘a keldim va dedimki: “Meni Tengri ishig‘a qil va ijozat berki, Bag‘dodqa boray va ilme kasb qilay va solihlarni ziyorat qilay. Mendin bu doiya sababin so‘rdi, ayttim. Ersa, yig‘ladi. Va qo‘pti va sakson oltun kelturdi. Va dediki: “Menga ota merosidin bu qolibdur”. Yarimin qardoshim uchun qo‘ydi va yarimin mening to‘numg‘a tikdi va manga safar izni qildi. Va manga ahd berdiki, barcha ahvolda rostliq qil va mening vido’img‘a chiqdi. Va dediki: “Bor, ey farzand, Tengri uchun sendin kesildim va qiyomatqacha seni ko‘rmagumdir. Men oz qofila bila Bag‘dodqa tavajjuh qildim”. Karvon Hamadondan o‘tganda, oltmish otliq yo‘lto‘sar – zo‘ravonlar chiqib, karvonni talaydi. Boladan ham “Nimang bor?” – deb so‘rashganida, “Qirq oltinim bor”, – deb javob beradi. Bolaning javobiga hayron bo‘lib, qaytaqayta so‘rashganda ham, u qirq oltini borligini aytaveradi. To‘nini so‘kib, qirq oltinni topadilar va hayron bo‘lishib, Abdulqodirdan so‘raydilar: “So‘rdiki, sening bu e’tirof qilurg‘a boising ne erdi? Dedimki: “Onam manga ahd berib erdi – sidq-u rostliqqa! Va men aning ahdiga xiyonat qilmam”. Pas, ul qavmning ulug‘i yig‘ladi va dediki: “Yillardurki, men Parvardigorim ahdig‘a xiyonat qilibmen”. Va qiladurg‘on ishidin mening iligimda tavba qildi”. Rostlikning kuch-quvvati bilan ular ilk tavbani qilib, karvon ahlidan nima olishgan bo‘lsa, egalariga qaytarishadi. Ona-bolaning og‘zaki ahdi, e’tiqodi, sidq-u sadoqati, rostlik sharofati tufayli karvon Bag‘dod shahriga sog‘-salomat etib boradi. Abdulqodir muntazam tahsil bilan shug‘ullanib, o‘n uch fanni mukammal egallaydi hamda Qur’on qiroati, fiqh, hadis ilmining ham yetuk bilimdoniga aylanadi. Rostlikni o‘z tariqatining ilk tavbasi – asosi deb bilib, jahon shayxlariga nasib bo‘lmagan fayz-u karomatlar sohibi bo‘lib qoladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Шайх Сайфиддин Абдулқодир Гийлоний. Сиррул-асрор. Мактубот(таржимон ва нашрга тайёрловчи,сўзбоши ва луғат-изоҳлар муаллифи Отабек Жўрабоев.) – Т., 2005.*

B.R.

UNS (ar.) – do‘stlik, yaqinlik. Irfoniy adabiyotda mahbub jamolining jilvasidan ko‘ngilning lazzat tuyishini tamsil qiladi. Ya’ni U. ilohiy jamol mushohadasidan ko‘ngilning farahga to‘lishidir. U. jamolning kamolidan ruhning huzuridir ham deydilar. Zunnun Misriydan U. haqida so‘rashganida: “U. – bu sevuvchi (oshiq)ning seviluvchi ma’shuqdan rozi bo‘lishidir”, – degan ekan. Ibrohim Moristoniy esa: “Uns – bu qalbning mahbub bilan quvonchidir”, – deydi. Bu eng kuchli hol bo‘lib, Ibrohim (a.s.)ning olov ichidagi holiga o‘xshaydi. U. holidagi solik o‘tga kirsa yoki qilich bilan yaralansa ham hech nimani sezmaydi. Haq b-n U. hosil qilgan solik mosivollohdan uziladi. N. ijodida U. kishining ko‘ngli, holi va amaliga monand hamroh-u hamdard topishidir. Bunday do‘st insonga ko‘z qorachig‘idek yaqin bo‘ladi.

Qilg‘ay insoniyat ar ko‘z mardumig‘a tutsa uns,
Ey Navoiy, yaxshidur insong‘a insondek anis.

Ammo bu olamda istagandek do‘st topish mushkul, faqat Alloh taologa yaqinlik maqomiga erishishgina inson ko‘ngliga taskin beradi. N. bunday qurbatga yetmoqqa ilinji bo‘lmay, Majnun u-n dasht-sahro devlari b-n yaqinlik ham yetarli bo‘lganini talmeh sifatida keltiradi. N. nazdida, U. chin oshiqlik, shu sababli Ma’shuq yaratgan har bir mavjudotga yaqinlik ko‘ngilga bir qadar taskin beradi:

Ul pari(y) men telba birla uns agar tutmas, ne tong,
Dasht aro Majnung‘a bas g‘uli biyobondek anis.

N.ning lirik qahramoni U.ni ishq va oshiqlik orqali ko‘radi va o‘zini ma’shuq oldida shu qadar

zaif his qiladiki, uning zarrasiga yaqinlikda bo‘lmoq ham shoir u-n ulug‘ saodatdir:

Ming fig‘onliq ko‘nglum ul gulrux
bila gar topti uns,
Basdurur bulbulg‘a gul bargi tari yanglig‘ anis.

Ad.: *Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик, 3-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011; Сажжодий Ж. Фарҳанги истилоҳот ва таъбироти ирфоний. – Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.); Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005; Шайх ал-Калободий. Тасаввуф сарчашмаси. – Т., 2002.*

E.O.

UNSIY (taxallusi; to‘liq ismi: Sayyid Qutbiddin Mirhoji Xurosoniy, XV asr) – shoir. Tarjimayi holiga oid ma’lumotlar saqlanib qolmagan. “Tuhfayi Somiy” tazkirasida keltirilishicha, u shikastanafs, parhezkor, erkin tabiatli kishi bo‘lib, umrini, asosan, faqirlik va go‘shanishinlikda o‘tkazgan. G‘azal va qasida yozishga rag‘bat ko‘rsatib, g‘azallar va qasidalar devoni tuzgan. N. tavsiyasiga ko‘ra, Amir Xusrav Dehlaviyning 40 ta g‘azaliga javob aytgan. G‘azallari asosan ishq-u irfon mavzusida. Layli va Majnun muhabbati haqidagi masnaviyni ham unga nisbat beradilar. Qasidalarida esa diniy ruh kuchli.

Ad.: *Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 3. – Душанбе, 2004.*

E.O.

“UNSIYA” – Hirot shahrida N. yashagan uy nomi. Tarixiy manbalarda yozilishicha, bu uy do‘stlar, ijod ahli, ustoz va shogirdlar suhbat quradigan ezgulik, xayr-ehson hamda ilm-ma’rifat maskani hisoblangan. U.ni N. o‘zining “H.S.H-.A.” nomli hasbi-holida “havlim”, Davlatshoh Samarqandiy “Tazkirat ush-shuaro” tazkirasida “fuqarolar murojaatgohi” va Bobur “Boburnoma” asarida “U.” deb atagan. M-n, Bobur o‘z memuarida bu dilkusho maskannni ikki o‘rinda hurmat b-n tilga oladi. 1506-y.da Hirotga kelganida U.da bir muddat yashagani, N.ning faoliyati hamda ijodi bilan yaqindan tanishganini “... Tonglasi kelib “Bog‘i Nav”da tushtum. “Bog‘i Nav”da bir kecha bo‘ldum, ani munosib ko‘rmay Alisherbekning uylarini tayin qildilar, Hiridin chiqquncha Alisherbekning uylarida edim” deya xotirlasa, yana bir o‘rinda: “Yigirma kunkim, Hirida erdim, har kunda ko‘rmagan yerlarni sayr qilur edim. Ajchimiz bu sayrlarda Yusuf Ali ko‘kaldosh edi” deb Hirot sayri va safari haqida batafsil lavhalar beradi va shaxsan N. barpo qilgan Alisherbek bog‘chasini, taxti N.ni, “Qudsiya” nomli maqbara-masjidini, “Xalosiya” va “Ixlosiya” xonaqohini, “Safoiya” va “Shifoiya” nomli hammom va dorushshifosini ko‘rganini yozadi va “...Alisherbekning o‘lturur uylarini “Unsiya” derlar” deya izoh va tushuntirish ham beradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳолоти Саид Ҳасан Ардашер. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ҳолоти Паҳлавон Муҳаммад. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Давлатшоҳ Самарқандий. Тазкират уш-шуаро. (Форс-тожик тилидан Б.Аҳмедов таржимаси.) – Т., 1981; Бобур. Бобурнома. – Т., 2002*.

B.R.

UNSURIY (taxallusi; to‘liq ismi: Abulqosim Hasan binni Ahmad Unsuriy (970/80, Balx − 1039/40, G‘azna) − fors-tojik shoiri. O‘z davrining ilmiy-madaniy markazlaridan bo‘lgan ona shahrida tahsil olib, barcha fanlarda kamolot kasb etadi. Avval Sulton Mahmudning ukasi Nasr Sabuktegin dargohida xizmat qiladi. Uning vafotidan so‘ng G‘aznaga kelib, Mahmud G‘aznaviy saroyiga yo‘l topadi. Zukko ta’bi, hozirjavobligi, go‘zal qasidalari bilan Sulton e’tirofiga sazovor bo‘lib, malik ush-shuaro maqomiga ko‘tariladi. Sultonning barcha urush-yurishlari, bazm-u majlislarida birga bo‘ladi. Uning in’om-ehsonlariga sazovor bo‘lib, G‘aznaning eng badavlat odam-

laridan biriga aylandi. Fors-tojik ilm-u adab ahli orasida bir gap yuradi: “Ikki shoir ikki hukmdor davrida shuhratga erishdi: Rudakiy − somoniylar saltanatida, Unsuriy − g‘aznaviylar saroyida”.

U. Sharq she’riyatining, deyarli, barcha janrlarida qalam tebratgan. Davlatshoh uning devonini 30 ming bayt atrofida deb ma’lumot beradi. Lekin bizgacha bu muazzam merosning uchdan bir qismi ham yetib kelmagan. Uning bizgacha yetib kelgan lirik merosi 70 qasida, 76 ruboiy va masnaviylaridan parchalardan iborat. U, xususan, qasidachilikni yuksak maqomga ko‘targan. Jumladan, Y.E.Bertels uning 162 baytdan iborat bir qasidasini tahlil qilar ekan, unda Sulton Mahmudning 998-y.dan 1014-y.gacha olib borgan janglari tadrijan tasvirlangani, u shoir tarjimayi holi va g‘aznaviylar saltanatidan tutgan mavqeyini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega ekanligiga e’tibor qaratadi.

U. “Vomiq va Uzro”, “Surxbut va Xingbut”, “Shodbahr va Ayn ul-hayot” kabi oshiqona dostonlar yozgan. Bu u-n doston ham Mahmud G‘aznaviyga bag‘ishlangani u-n “Xizonayi Yaminuddavla” (“Mahmud xazinasi”) nomi b-n shuhrat qozongan. Abu Rayhon Beruniy ularni arab tiliga tarjima qilgan.

N. U. ijodi xususida biror-bir fikr bildirmagan bo‘lsa ham, uning nomini bir necha marta zabardast so‘z san’atkorlari qatorida hurmat b-n tilga oladi. Jumladan, “X.”ni tugatishi munosabati b-n ko‘rgan tushida Sharqning buyuk shoirlari davrasida Unsuriyni ham ko‘ramiz:

Ul Sa’di-yu, Firdavsi-yu, Unsuriy,
Sanoi-yu, Xoqoni-yu Anvariy.

Jomiy esa “Bahoriston”da uni o‘z davri shoirlarining sardori bo‘lgan, deb ta’rif etadi. Binobarin, N. ham uni so‘z san’ati ustodlaridan biri sifatida bilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-жилдлар. – Т., 2011; Абдураҳмон Жомий. Баҳористон (Ш.Шомуҳамедов тарж.). – Т., 1997; Абдуллаев А. Адабиёти форсу тожик дар нимаи аввали асри XI (Доираи адабии Ғазнин). – Душанбе, 1979; Ҳомидий Ҳ. Кўҳна Шарқ дарғалари. – Т., 1999; Бертельс Е.Э. История литературы и культуры Ирана. – М., 1988; Давлатшоҳ Самарқандий. Тазкират уш-шуаро. – Теҳрон, 1998 (ҳ.-ш.).*

E.O.

URYO – N.ning “T.A.H.” asari qahramoni. N. uni kitobning Dovud (a.s.)ga bag‘ishlab yozilgan “Dovud binni Iysho (a.s.)” fiqrasida tilga olgan. Asar syujetiga ko‘ra, Dovud (a.s.) U.ning xotinini qo‘qqisdan ko‘rib, sevib qoladi va dastlabki surishtirishiga ko‘ra, bu jamila, go‘zal ayol harbiy kishi U.ning xotini bo‘lib chiqadi. Dovud (a.s.) bu ayolning visoliga yetishish u-n turli yo‘llarni izlaydi. Bilishicha, U. harbiy muhorabada bo‘ladi. O‘sha urush bo‘layotgan manzilga Dovud (a.s.) maktub jo‘natadi. N. yozadi: “Va Uryo Dovud (a.s.)ning Savob otlig‘ inisi bila Balqo shahrining muhosarasi mashhur erdi. Va qavmda mutaayyin kishi erdi. Dovud (a.s.) Savobqa noma bitib, dushvor ish Uryog‘a ruju’ qildikim, Uryo ul harbda shahid bo‘ldi. Va Dovud (a.s.) ul zaifaning iddati o‘tkondin so‘ngra nikoh qilmoq bo‘ldi”.

U. o‘ldiriladi. Dovud (a.s.)ning 99 nafar kanizagi bor edi, buni bilgan ayol unga shart qo‘yadi. Sharti bo‘yicha, agar u o‘g‘il tug‘sa, o‘g‘lini valiahd qilishni talab qiladi. Dovud (a.s.) bu ayolga uylanadi, vaqt o‘tib, ayol Sulaymon (a.s.) ni tug‘adi va Sulaymon (a.s.) Dovud (a.s.)ni vafotidan keyin ota taxtiga o‘tiradi.

N.ning yozishicha Dovud (a.s.) bu ayol b-n bog‘liq xatti-harakatlaridan iztirob chekadi. Allohga juda ko‘p tavba-tazarru qiladi. Shunda Jabroil (a.s.) unga xabar keltiradi: “Dovud (a.s.) Jabroil ta’limi bilan Uryo qabrini boshig‘a borib, Uryodin talabi afv qildi. Haq taolo Uryo tanig‘a ruh kiyurub, Dovud (a.s.) ani qatlg‘a amr qilg‘onin afv qilib, mankuhasin nikoh qilgani jihatidin javob bermadi. Dovud (a.s.) boshig‘a tufroq sovurub, jaza’ bunyod qildi ersa, xitob qildi-

kim, sen xotiringni jam tut, biz chun gunohingni bag‘ishladuq, qiyomat kuni Uryog‘a oncha javr va qusur karomat qilolikim, ul ham seni buxl qilg‘ay. Dovud (a.s.) ko‘ngli ul ishdin itmiyon topti”.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

B.R.

USMON (r.a) – fil yilining oltinchi sanasida, ya’ni Rasulullоh (s.a.v.) hazratlarining tug‘ilishlaridan olti yil keyin Toif shahrida dunyoga keldilar. U kishi asli Quraysh qabilasidan bo‘lib, nasablari Rasulullоh (s.a.v.) nasablariga Abdumannob orqali birlashadi. Otalari Affon ibni Abdul Os ibni Umayya ibni Abdu Shams ibni Abdumannob, onalari Arvo Qurayz ibni Habib ibni Abdu Shams ibni Abdumannobning qizlaridurlar.

Abu Bakr Islomni qabul qilganlaridan uch kun o‘tgach, bir guruh, do‘stlarining ichlarida turgan Usmonga Islomni arz etadilar. U. (r.a.) ham 34 yoshlarida hazrati Abu Bakr (r.a.) ning takliflarini qabul qilib, dinga kirgan dastlabki 9 kishining biriga aylandi. Shu b-n birga Rasulullloh (s.a.v.)ning eng sirdosh kishilaridan biri bo‘ldi va chaharyorlardan biri sifatida tarixda qoldi. Badiiy adabiyotda esa Allohga hamd, Muhammad (s.a.v.)ga na’t kelgandan so‘ng 4 xalifaga ham bag‘ishlov, ta’rif-tavsif keltirilgan. Bu tariqat adabiyotida ham, devon adabiyotida ham aksar an’ana holiga kelgan. N. ham mazkur islomiy adabiyot an’anasiga sodiq o‘laroq qalam tebratib, “X.”ning ilk dostoni “H.A”ning 4-na’tida Payg‘ambar (s.a.v.)ning “as’hobi kan-nujum”, ya’ni “mening ashoblarim yulduz kabidir” so‘zini keltirib, hazrati Abu Bakr Siddiq, hazrati Umar, hazrat Usmon, hazrat Ali (r.a.)lar haqida to‘xtaladi. Ularning islom tarixidagi buyuk xizmatlarini eslatadi. Jumladan, U. (r.a.) haqida shunday deydi:

Buki kalomulloh angadur nasib,
Kim yo‘q anga mu’jiza andin g‘arib.

Sura dema, “qof” ila “nun” yoki “sod”,
Ya’niki har harfig‘a oning savod.

Sunbulidek borcha parishon edi,
Jomi’ anga jomiyi qur’on edi.

Hazrati U. (r.a.)ning islom tarixida alohida e’tirof etiladigan xizmatlaridan biri Qur’oni Karimni jam etib, kitob holiga keltirganidir. N. ham buni alohida e’tirof etadi. “L.T” dostonida esa xalifayi roshidinlarga ketma-ketlikda to‘xtaladi. Jumladan, “Amir ul-mo‘minin Usmoni zunnurayn roziollohu anhu shonida” deya maxsus bob bag‘ishlaydi. Bob hazrati U. (r.a.)ning eng mashhur fazilatlaridan bo‘lmish hayo xususidagi tavsif b-n boshlanadi:

Ul hayo koniki nurul-ayn edi,
O‘ylakim aynayn zun-nurayn edi.

Sidq koni-yu muruvvat maxzani,
Hilm bahri-yu futuvvat ma’dani.

Islom tarixida musulmonlarga yordam bergan futuvvat ahli orasida U. (r.a.)ning alohida o‘rni bor. Ul zot badavlat savdogar odam edilar. Tabuk g‘azotida musulmonlarning qo‘shinini to‘liq qurollantirgan. Ming dinor pul, 950 ta tuya va 50 ta ot hadya qilgan. Shuningdek, yahudiydan Rum qudug‘ini ham sotib olib, Alloh yo‘lida musulmonlarga hadya qilib yuborganlar. Abu Bakr Siddiq (r.a.) xalifalik qilayotgan vaqtlarida bir yil yog‘ingarchilik kam bo‘lib ocharchilik boshlanadi. Abu Bakr (r.a.) odamlarga: “Bor narsalaringni berkitmay to Alloh kenglik bergunga qadar yeb turinglar”, deb buyuradilar. Ertasiga Abu Bakr (r.a.)ga hazrati U. (r.a.)ning hovlilariga ming qop bug‘doy va taom kelib tushganligini xabari yetadi. Ertalab savdogarlar U. (r.a.)ning hovlilariga borib, “o‘niga o‘n ikkidan beramiz”, − deyishadi. U. (r.a.) “bu kamlik qiladi”, − deganlarida ular “bo‘lmasa, o‘n beshdan beraylik”, deyishdi. U. (r.a.) “yana qo‘shinglar”, deganlarida, ular “yana qancha

qo‘shaylik”, axir biz Madina savdogarlarimizku?” deyishdi. “Har tangasiga o‘n tangadan bera olasizmi?” dedilar. Ular “yo‘q” deb javob berishdi. “Unday bo‘lsa guvoh bo‘ling, ey savdo ahli, bu bug‘doy Madina kambag‘allariga sadaqa qilinadi” dedilar va hammasini bepul sadaqa qilib yuborganlar. Bu kabi himmatlari haqida ko‘plab misollarni keltirish mumkin. Shuning uchun U. (r.a.)ning futuvvat ahli ekanliklariga N. ham urg‘u beradi.

“Al hayo-yu minal imon” – “Hayo iymondandir” hadisi sharifi aytilganda, avvalo, U. (r.a.) ning siymosi gavdalangan. Zero, Rasulullоh (s.a.v.)ning o‘zlari u kishining hayo egasi ekanliklarini ko‘p bora ta’kidlaganlar. Shu b-n birga N. ul zotning “Zunnurayn” laqablariga alohida e’tibor qaratadi. U. (r.a.) Rasulullоh (s.a.v.) qizlari Ruqiya (r.a.)ga Makkada yashagan vaqtlarida uylangandilar. Birgalikda Xabash viloyatiga hijrat qilganlar. Xabashda Abdulloh ismli o‘g‘illari tug‘ilgan. U. (r.a.)ni mazkur o‘g‘illarining nomi bilan kuniyalab, Abu Abdulloh deya atardilar. Abdulloh olti yoshga yetganlarida, ko‘zlarini xo‘roz chuqib olganligidan, yuzlari jarohatlanib vafot etganlar. Badrda musulmonlar mushriklar ustidan zafar topganliklarining sevinch xabari Madinaga kelgan kuni Ruqiya (r.a.) vafot etadilar. U. (r.a.) qattiq qayg‘uradilar.

Rasulullоh (s.a.v.) u kishining bunday qattiq alam chekayotganlarini ko‘rib: “Sizga nima bo‘ldi, muncha ham qattiq qayg‘urmasangiz”, deganlarida U. (r.a.): “Biror kishiga hanuz mening boshimga tushgan kabi musibat tushganmikin, Rasulullohning mening nikohimdagi qizlari vafot etgan bo‘lsa, endi o‘rtadagi qarindoshlik rishtasi uzilgan bo‘lsa”, deya javob berdilar. Rasulullоh (s.a.v.) hazratlari “Jabroil kelib, menga Alloh taolodan sizga qizimning singlisi Ummu Gulsumni bermoqlikka farmon bo‘lganligini buyuryaptilar” dedilar. U. (r.a.) u kishi b-n olti yil umr ko‘rganlaridan keyin vafot etadilar. Shunda Rasulullоh (s.a.v.) hazratlari agar yana bir qizim bo‘lsa edi, albatta, Usmonga berar edim, degandilar. Zero, u kishi Rasulullоh (s.a.v.)ning ikki pokdamon muborak qizlariga uylangan sababli Zinnurayn deya nom olgandilar.

Bu sharaf basdurki to holi ango,
Ashrafi ummat erur toli’ ango.

Kimga bergay dastkim rabbi g‘afur,
Kulbasig‘a solg‘ay andoq ikki nur.

Shuningdek, N. U. (r.a.)ning ko‘ngillar zindonida saqlanayotgan Qur’oni Karimni sahifalarga ko‘chirtirgani va unda ma’lum bir tartiblarga rioya qilgani xususida ham batafsil to‘xtaladi:

Tengri aylab jomiyi Qur’on oni,
Xalq deb Usmon bin Affon oni.

Chun Kalomullohni ruhul-amin,
Aylab irsoli shafi’ul-muznabin.

Ul zamondin to oning davronig‘a,
Yer tutib erdi hafo zindonig‘a.

Necha oyat jam’ aylab har arab,
Jam-u tartibig‘a ul bo‘ldi sabab.

Suralar o‘rnini ta’yin ayladi,
Bulajab devonni tadvin ayladi.

Bu bobdan so‘ng N. U. (r.a.)ning hayotlari haqidagi ma’lumotlarga asoslangan hadislarga tayanib hikoyat keltiradi. Rasulullоh (s.a.v.) oyoqlarini uzatib turgan ekanlar. Bir necha as’hoblar kelsa ham hollari o‘zgarmabdi. Ammo U. (r.a.) kirishlari b-n:

Lek Usmon kirgach ul millatqa sham’,
O‘lturub so‘ng‘on ayog‘in qildi jam’.

Kim erur osr-u hayolig‘ kimsa ul,
Topqusi tag‘yir oning holig‘a yo‘l.

Ulki mundoq hurmatin tutqay rasul,
E’tibori yo‘q nekim der har fuzul.

Albatta, U. (r.a.)ning xulafoyi roshidinning uchinchilari bo‘lganliklari, tirikliklaridayoq jannat xabarini eshitganliklari ham u kishi haqida tarix kitoblarida maxsus xabarlar berilishiga sabab bo‘lgan. Zero, Rasulullоh (s.a.v.): “Har bir nabiyning hamrohi bordir. Mening jannatdagi hamrohim Usmondir”, – deganlar.

U. (r.a.) fitna va zulm tufayli namoz o‘qiyotgan mehroblarida o‘ldirildi, shuning uchun *“shahidul mehrob”* martabasiga erishganlar.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

Z.R.

USMON Qo‘chqor (15.07.1953, Buxoro – 17.09.2017, Toshkent) – shoir, tarjimon, muharrir. Tosh-DU (hozirgi O‘zMU)ning filologiya fakultetini tugatgan. 1975–1977-yy.da G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyotida ishlagan. 1977–1979-yy.da ona yurti Shofirkonga borib, o‘rta maktablarda o‘zbek tili va adabiyotidan dars bergan. Yana poytaxtga qaytib, “O‘zbekiston” (1979–1986), “Cho‘lpon” nashriyotlarida (1986–1988) muharrir, “Yoshlik” jurnalida, “Ma’naviyat” nashriyotida Bosh muharrir lavozimida (1988–1996) mehnat qilgan.

Ilk she’riy to‘plami 1982-y.da “Hayajonga ko‘milgan dunyo” nomi b-n chop etildi. So‘ngra shoirning “Akssiz sadolar” (1986), “Uyqudagi minora” (1987), “Og‘ir karvon” (1991) kabi ancha jiddiy, salmoqli she’riy guldastalari yaratildi.

N. U.Q.ning sevgan shoirlaridan bo‘lib, bir umr uning ijodiga murojaat qilib, turli she’rlarida buyuk salafi va uning asarlariga ishoralar ham qildi. N.ga bag‘ishlab “Samarqand safari”, “Navoiy sabog‘i” kabi she’rlar bitdi. Jumladan, “Navoiy sabog‘i” she’rida yozadi:

Navoiydanki men jiddiy saboq uqdim,
Bu dunyoda qaro nedur, ne oq – uqdim.

“Samarqand safari” she’ri Abusaid Mirzo hukmronligi davrida N.ning Hirotda turolmay, tahsil bahona Samarqand safarini ixtiyor aylagani voqeasi tasviri asosiga qurilgan. She’rda salaf shoirning safar mobaynidagi kechinmalari 5 asr beridagi xalaf shoirning kechinmalari b-n omuxta bo‘lib ketadi:

Hali bilmaydiki, ufqqa tikilib,
Alisher bu faryod, oh-u voy aro –

Saroyga chorlaydi omadi kelib,
Temurning sovigan qoni – Boyqaro.

Hali bilmaydiki, shohlik shuhrati
O‘g‘ilni otaga aylagach g‘anim.

Fuqaro hurmati, yurt muhabbati,
O‘rtada o‘tishin umri o‘rtanib.

Tushiga kirmagan Astrobod ham,
G‘urbatni atarkan bir oltin qafas.

Asli oltin qafas – qonli, muhtasham
Shohning saroyidan boshqasi emas.

N.ga bag‘ishlangan sakkizligida uning hajga borolmay qolganiga o‘ziga umid ko‘zlarini tikib turgan xalqni ko‘zi qiymaganini sabab qilib ko‘rsatadi:

Hazrat tayyor edi Buyuk Tavbaga,
Boyqaro ra’yin ham, balki, yengardi.

Qo‘yib yubormadi Uni Ka’baga
Hasrat chekib yotgan ulusning dardi...

N.ning “Yuzida xol sahfada tomg‘an kibi qaro...” misrasini tazmin qilib olib, “Sening yuzingdagi xoling ketmadi” misrasi takrorlanib keladigan murabba bitadi. “Hamal bog‘larida sumbula ohi” nomli she’rida N. qo‘llagan “xazon sipohi” sifatini qo‘llaydi. “Quvg‘in” dostonidagi tun tasviri “L.M.” dostonining tun tasviriga bag‘ishlangan 9-fasliga o‘xshaydi.

Umuman, N. adabiy merosi va N. mavzusi U.Q. ijodida ham muhim o‘rin tutadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Қўчқор У. Ҳаяжонга кўмилган дунё. – Т., 1982; Акссиз садолар. – Т., 1986; Уйқудаги минора. – Т., 1987; Оғир карвон. – Т., 1991; Очилов Э. Ҳассос шоирнинг ҳаяжонли шеърлари // “Ўзбек адабиётшунослигининг долзарб масалалари” мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. – Т., 2022.*

E.O.

USMONOV Olim (1912–1988) – f.f.n. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi. 1948-y. “Мухокамат ал-лугатайн Алишера Наваи” monografiyasini nashr qildi. Yetti bobdan iborat ushbu kitobda N.ning fonetika, leksika, morfologiya bo‘yicha qarashlari tahlil qilingan. Aytish joizki, ushbu kitobda shoirning lingvistik qarashlari ancha chuqur ochib berilgan.

Birinchi bobda asarning o‘rganilish tarixi bayon qilingan. Asar ilk marta Parijda 1841-y. da nashr qilingan. Shundan so‘ng ikki yuz yil davomida G‘arb olimlari bu asarga qiziqish b-n qaradilar. Ikkinchi bobda temuriylar davridagi mumtoz o‘zbek tili haqida ma’lumot berilgan. Temuriylar davrida o‘zbek tiliga e’tibor kam bo‘lganligi, davlat ishlari, o‘zaro muloqotda ko‘proq fors tilidan foydalanilganligi aytilgan. “Alisher Navoiy ona tilining yalovbardori” nomli uchinchi bobda shoirning o‘zbek tilining jonkuyari sifatidagi faoliyati haqida ma’lumot beriladi. To‘rtinchi bob “Alisher Navoiy til va tafakkur” deb ataladi. Unda shoirning badiiy til va uslubi tahlil qilingan. Shoir bu masalada Nuh payg‘ambar afsonasiga suyanadi. Shoir so‘zga juda katta e’tibor bergan, so‘z ma’naviyat olamida qudratli qurol ekanligi uning ko‘p asarlarida bayon qilingan. Shoir so‘zning ma’nosini jon, tashqi tarafini qolip deb ataydi. Beshinchi bobda N.ning o‘zbek tili so‘z boyligi va uslubiy qirralari haqidagi qarashlari talqin qilingan. Shoir o‘zbek tilini fors tili bilan qiyoslar ekan, uning *lafzi kasrat – so‘z boyligi*, *iborati vusati – ma’no kengligi, mavoniy g‘arobati ma’no nozikligi diqqat-daqiqligi, fasohat-amzaundorligi chechanlik, bolog‘at – yengil va chiroyli talaffuz qilinishini* ta’kidlaydi. Ushbu bobda yuzta fe’l keltirilib, ularning ma’no nozikliklari qayd qilingan. Ichmoq ma’nosidagi *sipqarmoq, tomshimoq*ning bir-biridan ma’noviy farqlari ko‘rsatib berilgan. Bu yerda ayrim turkiy so‘zlar fors tili bilan qiyoslangan, ba’zi so‘zlarni fors tilida yo‘qligi ta’kidlangan.

“Eski o‘zbek tilida so‘z yasalishi va grammatik shakllar” nomli oltinchi bobda o‘zbek tilida so‘z yasalishida affiksatsiya asosiy rol o‘ynashi ko‘rsatilgan. Yettinchi bobda “Alisher Navoiyning fonetik qarashlari” bayon qilingan. Kitobda turkiy tillardagi *vov va yoy*larning o‘ziga xos xususiyatlari ta’kidlangan.

Ad.: *Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Усмонов А. Мухокамат ал-лугатайн Алишера Навои. – Т., 1948.*

E.O.

USTOD SHAMSIDDIN SANGTAROSH – N.ning iste’dodli zamondoshlaridan biri. Usta hunarmand. Xondamir “Xulosat ul-axbor” va “Makorim ul-axloq” tarixiy asarlarida xabar berishicha, N. Hirotda qayta tiklagan Jome’ masjidi uchun Xof viloyatidan sotib olib kelingan qimmatbaho marmartoshdan minbar yasashni U.S.Sh.ga ishonib topshirgan: “Ulug‘ dargoh mulozimlari qidira-qidira Xof viloyatidan topdilar. Egasiga to‘la narxini berib, uni shaharga keltirdilar. U.S.Sh. bu toshdan minbar yasashga kirishdi. Oliy nasabli Amirning himmatlari soyasida shunday bir minbar qurildiki, olamni bezovchi quyosh xatib kabi har tong ko‘m-ko‘k osmon minbariga chiqqanda, bu minbarning tengi va o‘xshashini topolmaydi”. Jome’ masjidining pardozlash ishlari poyoniga etganda, Amir N. osh tortish marosimini o‘tkazadi (1500-yil 13-martda) va bu marosimda N. 100 kishidan iborat usta,

hunarmandlar guruhini qimmatbaho po‘stinlar, a’lo chakmonlar b-n mukofotlagan, ular qatorida U.S.Sh. ham bo‘lgan.

Ad.: *Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1986; Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Т., 2015.*

B.R.

USTOD HASAN BALABONIY – N.ning zamondoshi, sozanda. U o‘z davrida Hirot madaniy muhitida nomdor sozandalaridan biri hisoblangan. U.H.B. haqida ma’lumotlar tarixiy manbalarda uchraydi. Adib Zayniddin Vosifiy “Badoye’ ul voqea” asarida U.H.B. nomini Miri Kalonning N. sharafiga Purza bog‘ida tashkil qilgan adabiy majlisda ustoz Hasan Noiy, ustoz Qulmuhammad Udiy kabi 18 nafar usta san’atkorlar qatorida tilga olgan.

Ad.: *Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1986.*

B.R.

USTOD HASAN NOYI (XV asr) – (laqabi; asl ismi: Muhibali Noyi) (XV asr oxiri – Hirot – XVI asr boshlari) – sozanda, bastakor, musiqashunos, shoir. Yoshligidan nay, rubob, chang va udni mahorat b-n chalib, U.H.N., Ustod Rubobiy nomlari b-n shuhrat qozongan. Otasi Rustamali Hiraviydan xattotlik va musavvirlik san’atlarini o‘rganib, bu sohalarda ham mashhur bo‘ladi. Sozanda va bastakor sifatida o‘z uslubiga ega bo‘lib, rubob va nay u-n qator asarlar tasnif qilgan. “Husayn”, “Ko‘chak”, “Buzurg” – “Naqsh”, “Amal”, “Peshrav” va “Savt” tasniflari shular jumlasidandir. “Naqshi Noyi”, “Peshravi Noyi” esa uning go‘zal va mashhur kuylaridandir. Ta’bi nazmi ham bo‘lib, yetuk g‘azal va ruboiylar yozgan.

N. “X.M.”da yozishicha, u Marvda ekanida Iroqdan U.H.N.ning vafoti xabari keladi. N. Jaloliddin Rumiy masnaviysining avval baytini tazmin kiritib, Jomiyga xat yo‘llaydi:

Sharhi hajri shohi ustodon Hasan,
“Bishnav az nay chun hikoyat mekunad”.
Bandi-bandi u judo gashta zi ham,
“Az judoiho shikoyat mekunad”.

Tarj: Ustodlar shohi Hasandan judolik sharhini “qanday hikoya qilishni naydan eshitgil”, uning bo‘g‘im-bo‘g‘imi bir-biridan ajralgan. Judoliklardan shikoyat qiladi.

Jomiy esa javob xatida shu tazminni keltirgani holda quyidagi she’rni yozib yuboradi:

Shud nayi xoma dilamro tarjumon,
“Bishnav az nay chun hikoyat mekunad”.
Bo zaboni tez-u chashmi ashkrez,
“Az judoiho shikoyat mekunad”.

Tarj: Qalam nayi dilim tarjimoni bo‘ldi. “Qanday hikoya qilishni naydan eshit”. O‘tkir dil va yoshli ko‘z bilan. “Judoliklardan shikoyat qiladi”.

N. va Jomiydek adabiyot va san’at ahli homiy va murabbiylari U.H.N. vafoti haqida g‘oyat ta’sirli tazmin istifoda etilgan she’rda o‘z hamdardliklarini izhor qilgan ekanlar, bu U.H.N.ning chindan ham ulkan san’atkor bo‘lganidan dalolat beradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамсат ул-мутаҳаййирин. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 2. – Душанбе, 1989.*

S.G‘.

USTOD SHODIY (taxallusi; ismi: G‘ulom Shodiy) (XV asr) – sozanda va bastakor, N.ning zamondoshlaridan. Hirotda tug‘ilgan. Shodiy degan xonandaning o‘g‘li bo‘lgan. Musiqa san’atini zamonasining nomdor ustodlaridan, musiqa nazariyasini Abdurahmon Jomiy va boshqalardan o‘rgangan. U maqomning mushkul kuy va qo‘shiqlarini mahorat b-n ijro etgan. “Iroq” maqomida u ijod qilgan 12 naqsh XV asr musiqa taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Bobur ham uni yaxshi savt va naqshlari bor, o‘z davrida u kabi naqsh va savt ijod qiladigan san’atkor yo‘q edi, deb ta’riflaydi. “Boburnoma”da keltirilgan

ma’lumotga ko‘ra, Shayboniyxon uni Qozon xoni Muhammad Aminxon huzuriga yuboradi va uning shunday keyingi taqdiri noma’lum.

Ad.: *Бобурнома. – Т., 2002; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 3. – Душанбе, 2004.*

E.O.

USTOD QULMUHAMMAD (XV asr) – shoir va musiqashunos. N.ning shogirdi, unga N. musiqiy ilmdan ta’lim bergan. Musiqa nazariyasidan bilimini takomillashtirish maqsadida N. U.Q. ni bu sohaning ustozlaridan Mavlono Ali Shohga tavsiya qiladi. Keyinchalik u yetuk musiqashunos darajasiga ko‘tariladi. U.Q. shu sohaga oid tasniflar yaratgan va ustoz musiqashunoslar ham uning asarlarini o‘rganib, o‘zlarini unga shogird deb hisoblab, faxrlanib yurganlar.

“M.N.”da U.Q.ning shibirg‘onlik ekani va kichik yoshidan g‘ijjak chalishi haqida so‘z ketadi. O‘zga fazilatlaridan, – deb udug‘ mutafakkir shoir U.Q.ning ilmi nujum, naqqoshlik va husnixat bilan ham shug‘ullanishini ta’kidlaydi. Avvalo, – deydi N., – ud va g‘ijjak va qo‘buzni asrida oncha kishi chola olmas”. Muammo qoidalarini ham g‘oyat puxta bilganligini bayon etib, bir muammosini misol tariqasida keltiradi.

Z.Vosifiy Mavlono Binoiyning N. sharafiga Barda (Vosifiyda Barza) bog‘ida bergan ziyofati ishtirokchilari orasida U.Q.ning ham bo‘lganini yozadi. U.Q. musiqa sozlariga o‘zgarishlar kiritib, yangiliklar ham yaratgan. Ulardan birini Bobur aytib o‘tadi: “G‘ijjakka bu uch qil taqdi”. Bundan tashqari, Bobur uning ko‘p peshravlar bog‘laganini ham qayd qilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

S.G‘.

USTURLOB – joyning geografik koordinatalarini, vaqt, yulduzlarning chiqish va botish paytlarini aniqlashda, shuningdek, amaliy astronomiyaning boshqa masalalarini hal qilishda ishlatiladigan asbob. N. she’riyatida poetik tasvirning o‘ziga xosligini ta’minlash maqsadida u yoki bu munosabat b-n U.ga ham murojaat qilingan. “B.V.” devonidan o‘rin olgan g‘azallarning birida hijrondagi lirik qahramon holati va tashqi qiyofasini tasvirlashda usturlobga bir real obraz sifatida murojaat etadi:

Ul quyoshtin ayru sorig‘ chehram usturlobdek,
Ko‘rguzur tirnog‘ ila behad *raqam, bisyor xat*.

Ko‘rinadiki, N. usturlobni real tasavvur etgan. Bugina emas, shoir bu ilmiy asbobning ko‘rinishi (rangi) va tuzilishi “tirnog‘” ko‘rsatkich (strelka) bilan son-sanoqsiz raqam va yozuvlarni qayd etishi xususida qiziqarli ma’lumotlar ham beradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик, 3-жилд. – Т., 2011.*

M.A.

UCH DOSTON KONKORDANSI – “Konkordans” lotincha so‘z bo‘lib, u yoki bu asardagi barcha so‘z va iboralarni o‘z ichiga olgan ilmiy tadqiqot hisoblanadi. Alifbo tartibida berilgan so‘z va iboralarni necha marta ishlatilgani, qaysi sahifada uchrashi aniq ko‘rsatiladi. Bu tadqiqotchilarga ko‘p qulayliklar yaratadi. Undan shoir yoki yozuvchining so‘z boyligi, so‘z ishlatish mahorati kabi masalalar bo‘yicha ilmiy-ma’rifiy ma’lumotlar olish mumkin. K. tilshunos va adabiyotshunoslarning ishini ancha yengillashtiradi, yangi-yangi tadqiqotlarga yo‘l ochadi. Eng muhimi, bugungi tezkor zamonda olimlarning vaqtini tejaydi, ilmiy ishlarni aniq va yuqori saviyada bajarilishiga imkon yaratadi. Buni chuqur anglagan Toshkent davlat sharqshunoslik instituti prof.lari Abdurahim Mannonov, Ahmadjon Quronbekov va Muhammadjon Imomnazarovlar F-1-135 “Alisher Navoiy asarlari konkordansining ilmiy-uslubiy tadqiqi” lo-

yihasi asosida “X.” dostonlari konkordansi bo‘yicha ish olib bordilar. Olimlar konkordans tuzishda to‘rtta muhim manbaga suyanganlar: 1. Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik markazida saqlanayotgan “X.”ning Abdujamil xattot tomonidan ko‘chirilgan noyob nusxasiga; Ushbu nusxa shoirning hayotlik paytida Hirotda ko‘chirilgan bo‘lib, n.shunos olimlarning fikricha, unga shoirning nazari tushgan. 2. N. dostonlarining yirik matnshunos Porso Shamsiyev tomonidan tuzilgan tanqidiy matniga; 3. O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti olimlari tomonidan 1987–2003-yy.da tayyorlangan 20 jildlik mukammal asarlar to‘plamiga; 4. G‘afur G‘ulom nashriyoti tomonida 2011-y. da nashr etilgan shoirning 10 jildlik to‘la asarlar to‘plamiga.

Hozirga qadar olimlar “H.A.”, “F.Sh.” va “L.M.” dostonlarining konkardansini tuzib nashr qildilar. Ularning hisob-kitobi bo‘yicha 4050 baytli “H.A.”da 12.155 ta, 5834 baytli “F.Sh.”-da 14.445 ta, 3669 baytli “L.M.”da 9994 ta, uch dostonda qaytariqlari b-n jami 36.594 ta so‘z va ibora ishlatilgan. Bu raqamlarga izoh kiritmoq lozim . Chunonchi, “L.M.”da 9994 ta so‘z va iboradan ayrimlari bir, boshqalari ko‘p marta uchraydi. M-n, *ora* so‘zi 153 marta uchragani holda *barq* 12 marta, *bari* 13 marta, *borib, borliq, bars, borur* so‘zlari bir marta ishlatilgan. Shoir asarlaridagi asosiy lug‘at fondini aniqlashda *ora, barq, bari* so‘zlari ham *borib, borliq, bars* kabi bir so‘z qatorida hisobga olinishini inobatga olsak, dostondagi asosiy so‘zlar miqdori besh ming atrofida bo‘lishi mumkin. Xuddi shunday fikrni “H.A.” va “F.Sh.” dostoniga nisbatan ham aytish mumkin.

Ushbu dostonlardagi so‘z iboralarning o‘zaro qiyoslash natijasida o‘xshash va o‘ziga xos xususiyatlari ko‘zga tashlanadi. Ammo o‘xshash xususiyatlar ko‘proq. Chunonchi, *orzu* so‘zi ikki dostonda uchraydi, ammo turli nisbatda. “H.A.”da 4 marta, “L.M.”da 2 marta, “F.Sh.”da uchramaydi. Bu olmoshi ham dostonlarda ko‘p uchraydi. Birinchi doston “H.A.”da 391 marta, ikkinchi doston “F.Sh.”da 1065 marta, uchinchi doston “L.M.” 669 marta. *Ko‘k* so‘zi “H.A.”da 30 marta, “F.Sh.”da 31 marta, L.M.” 21 marta. Dostondagi o‘ziga xosliklarni arabiy, forsiy va o‘zbekcha so‘zlarning turli miqdorda ishlatilishida ham ko‘rish mumkin. “H.A.”da arabiy, forsiy so‘z va iboralar ko‘p uchraydi. Buni dostonning falsafiy – didaktik mazmuni bilan izohlash mumkin. “F.Sh.”da ushbu so‘zlar nisbatan kam ishlatilgan. Sababi shoir unda sharq xalqlari og‘zaki va yozma adabiyotidan keng foydalangan. “L.M.”da ikkala dostonga qaraganda o‘zbekcha so‘zlar ko‘p uchraydi. Quyidagi baytda Majnun otasining nutqi asosan o‘zbekcha so‘zlardan iborat:

Ko‘ksum yarasini so‘kma muncha,
Bag‘rim qonini to‘kma muncha.
Och to‘yg‘azibon yalangni yoptim,
O‘ldim deganimda seni toptim.

Hozirda olimlar “X.”ning keyingi dostonlari “S.S.” va “S.I.” dostonlari konkordansi ustida ish olib bormoqdalar.

Ushbu konkordans tuzish ishlari to‘la nihoyasiga yetmagan bo‘lsa-da, ammo hozirdanoq uning ilmiy ahamiyatini alohida ta’kidlash zarur. U kelgusida mumtoz o‘zbek tili bo‘yicha olib borilayotgan barcha tadqiqotlarni yangicha va chuqurroq o‘rganishga yordam beradi. Va nihoyat eng asosiysi – ushbu konkordans xalqimizga N.ning so‘z boyligi Firdavsiy, Sa’diy, Hofiz, Gyote, Pushkin kabi buyuk adiblardan kam emasligini ko‘rsatadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

E.U.

USHTULUM (f.) – 1. Birovga qahr-u g‘azab, zulm-u sitam qilish; birovning narsasini kuch b-n tortib olish. 2. Qahr, g‘azab; zulm, sitam. 3. Jang, urush. 4. G‘alaba, qudrat. 5. Na’ra, faryod, sho‘r-u g‘avg‘o. N. she’riyatida ham U. so‘zi yuqoridagi ma’nolarni ifodalagan:

Yo‘q ul senda pinhonki, sen anda gum,
Maholatdin ammo ishing ushtulum.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. – Т., 1984; Фарҳанги забони тожики. Жилд 2. – М., 1969; Бурҳони қотеъ. Жилд 1. – Душанбе, 1992.*

M.A.

USHTURAK (f.) – bo‘taloq. Majozan.: suvning to‘lqinlanishi. “Navoiy asarlari lug‘ati”da izohlanishicha, U. – to‘lqin, mavj; U. urmoq – to‘lqinlanmoq. M-n:

Tuz ko‘runur nur chu turg‘on suda,
Egri bo‘lur ushturak urg‘on suda.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. – Т., 1984.*

V.R.

“**USHTURNOMA**” (“Tuya qissasi”) – Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” va “Bulbulnoma” kabi ramziy-majoziy timsollar asosida yozilgan asarlari sirasiga kiradi. Bu asariga ham shoir ramz-u timsollar vositasida Alloh taoloning birligi, yagonaligi – Tavhid haqidagi g‘oya-qarashlarini singdiradi.

“U.” – Sharq mumtoz adabiyoti, xususan, tasavvuf she’riyatini tushunishga yordam beradigan asarlar sirasiga kiradi. Dostonda ilgari surilgan falsafiy va axloqiy g‘oya-qarashlar hamda ularni asoslash uchun keltirilgan hikoyatlar o‘quvchilarning ma’naviy olamini boyitib, muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

N. “L.T.”ning Attor ta’rifiga bag‘ishlangan 13-faslida qisqa satrlarda shoir asarlarining mavzu-mohiyatini ko‘rsatib o‘tar ekan, “U.”da shohlar boshiga toj bo‘lgulik ma’no durlarini tizganligini ta’kidlaydi:

Chunki “Ushturnoma” aylab oshkor,
Nuktasi buxtilarin tortib qator.

Necha ming buxti nechukkim charxi dun,
Durr-u gavhar hamlidin bori zabun.

Chunki g‘avsi “lujjayi Halloj etib,
Har durin shohlar boshig‘a toj etib.

Balki aylab shoh toji ziynati,
Mulki naqdi har birining qiymati.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Шайх Фаридиддин Аттор Нишопурий. Уштурнома. – Теҳрон, 1380 (ҳ.-ш.); Шайх Фаридуддин Аттор Нишопурий. Уштурнома. – Т., 2012; Риттер Х. Фаридиддин Аттор. Ғойиблар хайлидан ёнган чироқлар (Мақолалар тўплами). – Т., 1994; Мухаммадходжаев А. Мировоззрение Фаридиддина Аттора. – Душанбе, 1974; Азизий. Фаридиддин Аттор.“Жаҳон адабиёти”, 2009, № 12; Очилов Э. Таржима оҳанрабоси. Шайх Фаридуддин Аттор Нишопурий. Уштурнома. – Т., 2012.*

E.U.

UHUD TOG‘I – Madina shahri yaqinidagi tepalik nomi. 625-y. 23 martda Uhud tepaligida musulmonlarning makkaliklar b-n jangi bo‘lgan. Bu jang Uhud jangi nomi b-n tog‘ni mashhur qilgan.

N. g‘azallari tarkibida U.T. obraz sifatida ham, toponimika ma’nosida ham uchraydi. M-n, N. U.T. b-n bog‘liq tasvirni “X.M.”ning “N.Sh.” devonidagi “Soqiyo, yo‘q g‘am-u dardima hadde” misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli g‘azalida mohirlik b-n qo‘llagan:

Mehnatim tog‘icha yo‘qtur Uhude,
Ani tortarg‘a meningdek ahade.

Ushbu baytda insonlarga N.ning yurakdan chiqarib aytadigan maslahati mujassamlashgan, chunki mehnat tog‘ini tortadigan kimsa shoir-

ning o‘zidir, N. nazarida biror kimsa o‘zi sabab topgan mehnat tog‘ini o‘zidek, o‘zi istagandek torta olmaydi. Lekin nima sababdan shoir badiiy maqsadda ushbu baytda U.T.ini, uzoq tarixni, moziyni eslaydi. Anglashimizcha, N. bu tog‘ni lirik tasvirda berib, inson o‘zgalar ta’sirida, ta’qibida emas, balki gohida o‘z xatosi bilan, g‘aflat-u nodonlik b-n ham mehnatga – g‘am-u tashvishlarga tushishi, yo‘qotishlar ko‘rishi mumkinligini ta’sirli ifodalaydi, ogohlantiradi. Shu b-n birga asosiy gap mehnat tog‘ida qolishda emas, gap sababini topib, mehnat tog‘ini tortib ketishda, nuqsonlardan, malomatlardan salomat chiqishda degan shoirning hayotiy tajribasi asosiga qurilgan xulosasi olg‘a suriladi.

Uhud muborak qadamjolardan biri bo‘lib, Muhammad (s.a.v.) u haqda: “Uhud shunday tog‘dirki, biz uni yaxshi ko‘ramiz, u ham bizni yaxshi ko‘radi”, – deganlar. N. bunga ishora qilish b-n o‘zi ham bu tog‘ni sevishini bildirib, U.T. obrazi orqali o‘z sharoit, imkoniyatini o‘zi sabab yo‘qotib, mehnat tog‘ida qolish, oqibatda mehnat tog‘ini o‘zi ko‘tarishi kerakligini mahorat b-n ko‘rsatmoqda va bu tog‘ning keyinchalik islom olamida muborak qadamjolardan biriga aylanganiga ishora qilmoqda. Bugina emas, baytda shoir yana Uhude – ahade shaklida qofiya yaratgan. Bu esa baytni ohangli va ta’sirli qilib, estetik ta’sirchanligini ta’min etgan. Shu b-n birga, baytni esda saqlab qolishni osonlashtirgan. Ustalik bilan N. *ahad* so‘zida so‘z o‘yini qilib, Allohning Ahad – toshni, tog‘ni yoruvchi qudratli ismiga ham ishora qilgan hamda mehnat tog‘ini ko‘tara olgan insonga Alloh – Ahad kifoya, yetarli, rahmli, shafqatli, eng ishonchli vakil kabi duoni eslatgandek bo‘ladi.

N. “N.M.”da yozishicha, Uvays Qaraniy Uhud urushida Payg‘ambar (s.a.v.)ning muborak tishlaridan judo bo‘lganlarini eshitib, 32 tishini urib sindiradi. Har bir tishini sindirganida, balki bu emasdir deb boshqasini sindirardi. Shu tariqa, barcha tishlarini urib sindiradi.

U.T. obraz, timsol sifatida mumtoz adabiyotimizda keng qo‘llanilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2011; Ал-Қуръон ал-Карим (Таржимон ва тафсир қилувчи Олтинхон Тўра). – Т., 1999; Соғуний А. Тарихи Муҳаммадия (4-нашр). – Т., 2007; Ибн Баттута. Саёҳатнома. – Т., 2012; Ражабова Б. Тоғ образи талқинига доир. Ўзбек тили ва адабиёти, 2013. 5-сон.*

B.R.

V

VADETSKIY Boris Aleksandrovich (1906–1962) yozuvchi va tarjimon. Sankt-Peterburgda dvoryan oilasida tug‘ilgan. Ijodiy faoliyatini XX asrning 20-yy.idan boshlagan. 1935–1937-yy. davomida Markaziy Osiyoda xizmat safarida bo‘lgan. Ko‘proq tarixiy mavzularda ijod qilgan. Oybek va boshqa shoirlarning she’rlarini tarjima qilgan. N.ga bag‘ishlangan roman muallifi.

Ad.: *Вадецкий Б.А. Простой смертный. – М., 1950; Вадецкий Б.А. “В поисках света” – М., 1959, Вадецкий Б.А. “Свет Москвы”, Вадецкий Б.А Водопады Аксая”. – Т., 1958.*

G.X.



VADUD MAHMUD (1898–1976, Samarqand) − munaqqid, publitsist. XX asrning 20-yy. vaqtli matbuotida “Vov”, “V.M.”, “Vadud Mahmudiy”, “Vadud Mahmud o‘g‘li” imzolari b-n faol qatnashgan, ko‘plab adabiy va publitsistik maqolalar yozgan. V.M. ulug‘ shoir haqida “Alisher Navoiy” nomli bir maqola (1925) va “Navoiy uchun” nomli bir xabar yozgan. Shuning o‘zi ham uning o‘tmish adabiyoti va N. ijodini chuqur bilishini ko‘rsatadi. “Alisher Navoiy” maqolasi o‘sha davr o‘quvchilariga ulug‘ shoir yashagan ijtimoiy muhit, uning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumot berish maqsadida yozilgan. U dastlab XV asrdagi Xuroson va Movarounnahrdagi ilmiy-adabiy, madaniy yuksalishga e’tibor qaratadi, N.ning tarjimayi holiga to‘xtaladi. Bu davrda tasavvuf nihoyatda rivojlanganidan N. ham shu muhitda tarbiya topgani, shuning u-n biror asari bu ta’limot g‘oyalaridan xoli emasligini ta’kidlaydi. Naqshbandiya tariqati piri Jomiyga murid tushgani, o‘sha zamonning buyuk so‘fiylaridan Sayyid Hasan Ardasherning eng yaqin do‘stlaridan ekanini qo‘shimcha qayd etib o‘tadi. N. ilmiy va adabiy shaxsiyati xususida fikr yuritib, jumladan, yozadi: “Navoiyning asli muhim shaxsiyati na mutasavvifligi, na shoirligi, na tarixyozg‘onidir. Uning mumtozligi shunday qaynag‘on va yuzlarcha yildan beri singib ketgan forslikning markazida turklar muassasalarini qurishidir”.

V.M. N.ni “turk adabiyotining otasi” deb ta’riflaydi va buni shunday asoslaydi: “u forsning eng mashhur asarlariga qarshi turk asarlari(ni) vujudga keltirdi. Mana, Navoiyning bizga muhim bir xizmati va uni bu kun turk adabiyoti otasi atalishining amaliy o‘zagi shundadir”.

Munaqqid fikricha, N.ning forsiyda ijod qilishi bu tilda ham yoza olishi, faqat yozibgina qolmay, beqiyos san’at durdonalarini bunyod eta olishining isbotidir. Shoirning 30 dan ziyod asari borligini aytib, qo‘lida bo‘lgan “Ch.D.”, “X.”, “M.N.”, “M.L.”, “T.M.A.”larni ko‘rsatib o‘tadi. Maqoladagi ayrim yetishmovchiliklar va chalkashliklar o‘sha davrda N. haqidagi ma’lumot va materiallarning yetarli bo‘lmagani b-n izohlanadi. “Navoiy uchun” xabari esa ulug‘ shoir tavalludining 500 yilligiga tayyorgarlikning borishi haqida ma’lumot berishga bag‘ishlangan.

“Bu kungi she’rlarimiz va san’atkorlarimiz” (1925) nomli maqolasida esa “L.M.” dostonidan bir bayt keltirib, N.ning san’atkorlik mahorati nechog‘lik yuksak bo‘lganini ibrat qilib ko‘rsatadi:

Ad.: *Вадуд Маҳмуд. Танланган асарлар (Нашрга тайёрловчи Б. Каримов). – Т., 2007; Каримов Б. Мунаққид ҳақида сўз // Вадуд Маҳмуд. Танланган асарлар. – Т., 2007; Каримов Б. Жадид мунаққиди Вадуд Маҳмуд. – Т., 2000; Хуррамова З. Вадуд Маҳмуднинг янги топилган тадқиқотлари // “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2001, 4-сон.*

M.A.

VAZ-ZUHO – “Zuho” surasining birinchi oyati. Z. choshgoh paytidir. Alloh taolo bu surani Zuho – choshgoh payti (hamda sukunatga cho‘mgan tun) b-n qasam ichib boshlaydi va o‘z Payg‘ambari Muhammad (s.a.v.)ga g‘azab ham qilmagani va uni tashlab ham qo‘ymaganini ta’kidlaydi. Shuningdek, surada hazrat Payg‘ambarimiz (s.a.v.)ga oxiratda beriladigan narsalardan bashorat beriladi va unga yetimga mehribonlik qilish, gadoyni jerkimaslik va Allohning ne’matlari haqida so‘zlab berish kabi amrlar tavsiya qilinadi.

N. aynan hazrat Muhammad (s.a.v.)ni ta’riflashda, “Vash-shams” (quyosh), “Vaz-zuho” (choshtgoh payti) so‘zlaridan foydalanadi. Rasulullоh (s.a.v.)ning yuzi quyoshga, undan taraladigan nurlar – choshtgoh nurlariga, qora sochlari tun zulmatiga o‘xshatiladi va h.k.

Quyidagi baytda tasvirlanishicha, “Tangri O‘z Payg‘ambari yuzidagi Mus’haf quyoshini (porlagan nurini) va uning Zuhosi (nur taratishi) ni shuning uchun ravshan qildiki, odamlar hidoyat nurlarini topsinlar”.

...Yana Tengriga mahbub, bandalarig‘a matlub va marg‘ub nubuvvat xotami va Rasuli hoshimiy (s.a.v.) na’tida bu matla’kim:

Ey qilib ravshan ulus topmoqqa anvori hudo,
Mushafi ruxsor uzra “Vash-shams”
birla “Vaz-Zuho”.

N. Alloh Qur’oni Karimda qasam ichgan quyoshni, Uning ulug‘ Payg‘ambar (s.a.v.) yuzidagi nurga nisbat berishi shundanki, birinchidan, Qur’on hazrat Payg‘ambarimiz (s.a.v.)ga nozil bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchidan, shoir bir qator g‘azallarida hazrat Payg‘ambarimiz (s.a.v.)ning ma’naviy nuri, har qanday quyosh nuridan ortiq ekanini badiiy tasvirlar orqali ko‘rsatib o‘tgan.

Shuningdek, N. “N.J.”dagi quyidagi she’rida ham Alloh qasam ichgan azamat quyoshni – Payg‘ambarimiz (s.a.v.) yuzining quyoshiga tashbih qiladi. U zotning kuyovi hazrat Aliga qarata: “Albatta, men sendan va sen mendan...” degan hikmatli so‘zini keltiradi:

Ul sham’ki, “Vaz-Zuho” quyoshi yuzidur,
“Mo zog‘” bila surma chekilgan ko‘zidur,
Oning sarikim, o‘zi ulu ul o‘zidur,
Borcha “inni minka anta minni” so‘zidur.

Ad.: *Алишер Навоий. Назм ул-жавоҳир. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

S.R.

VAZN (ar. – o‘lchov) – muayyan she’r asosida yotuvchi ritmik birlik. V. she’riy nutqni nasriy nutqdan ajratib turuvchi asosiy belgi bo‘lib, turli she’riy tizimlar va ularning tabiati b-n bog‘liq ravishda turlicha ko‘rinishga ega bo‘ladi. M-n, qisqa va cho‘ziq hijolarning ma’lum tartibda kelishiga asoslangan aruz tizimida V. she’riy asarning ritm-ohang xususiyatlarini baytdagi ruknlar soni va turiga ko‘ra ifodalovchi o‘lchov hisoblanadi. Aruzda V. u yoki bu bahr tarkibidagi o‘lchov bo‘lib, har bir bahr ko‘plab V.lardan tashkil topadi. Aruzshunoslar ularni matbu’ (yoqimli) va nomatbu’ (yoqimli bo‘lmagan), musta’mal (qo‘llanib kelgan) va muxtara (ixtiro qilingan) kabi turlarga ajratadilar. M-n, Boburning “M.” asarida ma’lumot berilishicha, forsiy va turkiy she’riyatda jami 537 vaznda she’r bitish mumkin. Ulardan 28 tasi XV asrgacha ikki xalq adabiyotida ham qo‘llanib kelgan. 104 ta V.ni u matbu’ sifatida ko‘rsatadi. 248 ta V.ni esa Boburning o‘zi ixtiro qilgan bo‘lib, ulardan ham foydalansa bo‘ladi.

A.Hojiahmedovning hisob-kitobiga ko‘ra, “X.M.”dagi she’rlarning 669 tasi hazaj, 24 tasi rajaz, 1827 tasi ramal, 12 tasi munsarih, 105 tasi muzore’, 348 tasi mujtass, 3 tasi sare’, 62 tasi xafif, 75 tasi mutaqorib, 3 tasi mutadorik, 1 tasi komil, 3 tasi tavil bahrining turli V.larida yozilgan. Demak, N. 16 bahrning 100 ga yaqin V.larida ijod qilgan. Eng ko‘p esa ramal, hazaj, mujtass bahri vaznlaridan foydalangan. M-n, ilk ijodi mahsuli bo‘lgan:

Orazin yopqoch ko‘zumdin
sochilur har lahza yosh,
Bo‘ylakim paydo bo‘lur yulduz
nihon bo‘lg‘och quyosh,

matla’li g‘azali ham ramali musaddasi mahzuf (foilotun foilotun foilotun foilun) V.ida yaratilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Муншаот. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек аруз луғати. – Т., 1998; Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Т., 1983; Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2010; Ҳожиаҳмедов А. Навоий арузи нафосати. – Т., 2006; Юсупова Д. Аруз ва мумтоз поэтикага кириш. – Т., 2020.*

E.O.

VAYSIY (XV asr) – mashhur kotib va shoir. N. “M.N.”ning 2-majlisida tilga oladi va V.ning kotiblikda mashhur va sohibi devon bo‘lganini yozadi. V. g‘oyat sodda va go‘l kishi bo‘lganidan N. hamda ko‘p do‘stlari uning bu nav’ soddalik b-n qanday qilib yaxshi g‘azallar yaratishiga taajjub qilar ekan. V. bir safarga chiqib, safar chog‘ida olamdan o‘tadi. N. V. nomini uning hamkasb do‘sti Sog‘ariy b-n bog‘lab ham tilga oladi. Jomiy Makka safariga otlanganida V. va Sog‘ariylar birga borishmoqchi bo‘lgan ekanlar. Lekin jo‘nash oldidan V. eshagim yo‘q degan, Sog‘ariy esa yana bir bahona b-n safardan qolgan. Shunda N. yaqin do‘stlaridan, mashhur shoir Shayxim Suhayliy (q.) hajviy bir qit’a yozgan va o‘sha qit’a el ichida juda shuhrat tutib ketgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

S.G‘.

VAKI’ – N.ning “S.I.” dostonidagi lashkarboshi obrazi. Otasining o‘rniga taxtga o‘tirgach, xiroj to‘lashdan bosh tortgan Iskandarga qarshi Doro urushga otlanadi. O‘ziga qaram el-u yurtlardan askar chaqiradi. Uning da’vatiga ko‘ra, arab mamlakatidan V. o‘z qo‘shini b-n keladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

A.A.



VALERIAN – Rim imperatori. Eramizning 257–260-yy.da taxtga o‘tirgan. Mazkur asrning 30–80-yy. Rim imperiyasida siyosiy beqarorlik avj olgan davr bo‘lgan. Ushbu yillarda imperator hokimiyati zaiflashib, hukmdorlar tez-tez almashib turgan. Ularning ko‘pchiligi harbiylar bo‘lib, qulay fursatni poylab taxtni egallab olardi. V. ham ana shunday imperatorlar sirasiga kiradi.

N.ning “T.M.A.” asarida ushbu hukmdor faoliyatiga doir ayrim qaydlar mavjud. N. uni ham bosha Rim imperatorlari singari o‘z nomi b-n emas, unvoni b-n “qaysar” deb tilga olgan. (Faqat Oktavian Avgust bundan mustasno. N. uni “Ag‘ustus qaysar” tarzida zikr etgan). V. qadimgi Eronning Sosoniylar sulolasiga mansub hukmdor Shopur binni Ardasher b-n zamondosh bo‘lgan. N. Shopur binni Ardasher haqida ma’lumot berar ekan, uning Rum qaysari b-n urush olib borgani va g‘alaba qozongani haqida yozadi. N.ning fikricha, bu urushga Rum qaysarining

(ya’ni V.ning) haddidan oshgani sabab bo‘lgan: “Rum qaysari o‘z haddidin tajovuz qilibdur”. N. ning bu ma’lumotini Eron tarixiga oid tadqiqotlar ham tasdiqlaydi. Ulardan ma’lum bo‘lishicha, Shopur binni Ardasher (Shopur I) 260-y.da Rim imperatori V. b-n urushib, uning ustidan g‘alaba qozongan. V. asir olingan. Manbalarda Shopur I asir imperatorni oddiy odamlar qatori to‘g‘on qurilishida ishlatgani, bu to‘g‘on keyinchalik “Bandi qaysar” (“Qaysar to‘g‘oni”) deb atalgani haqida xabar beriladi.

Shopurning V. ustidan qozongan g‘alabasi Naqshi Rustamda aks ettirilgan. Unda qaysar tiz cho‘kib, Shopurdan shafqat so‘rayotgan holda tasvirlangan. Lekin yuqoridagi tafsilotlar N. asarida mavjud emas. N.ning bu xususda bergan qisqacha ma’lumoti qaysar yengilgani va shundan so‘ng Rum Shopurga xiroj to‘lab turgani haqidagi qayd b-n tugaydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Грантовский Э.А., и.др. История Ирана. – М., 1977; Ражабов Қ. ва бошқалар. Жаҳон тарихининг муҳим саналари. – Т., 2011; Ковалев С.И. История Рима. – Л., 1986.*

Q.E.

VALI QALANDAR (t.y.n. – vafoti 1474, Sheroz) – shoir. Sulton Muhammad Boysung‘ur (1451-y. qatl qilingan) va Abulqosim Bobur (hukmronlik yillari 1449–1457) saroylarida xizmat qilgan. N.ning yozishicha, u xira, andishasiz va behayo kishi bo‘lib, Hirot adabiy muhitida badshe’rligi b-n mashhur bo‘lgan. Jahonshoh Qoraquyunlining o‘g‘li Pirbudog‘ Mirzo Abulqosim Boburga zarba berib, shoirlarni o‘zi b-n Sherozga olib ketganida, ular orasida V.Q. ham bo‘lgan. Uning quyidagi matla’sini N. yaxshi voqe bo‘lgan deydi:

Nayam malul, ki koram nako‘ nashud, bad bud,
Shavad-shavad, nashavad
k-o‘ mashav chi xohad shud?

Tarj.: Ishim yaxshi emas, yomon bo‘lganidan xafa emasman. Bo‘lsa-bo‘lar, bo‘lmasa-bo‘lmas, oqibati nima bo‘lar ekan?

Davlatshoh Samarqandiy esa uni g‘azalni yaxshi aytishi va Boysunqur Mirzo uni aziz tutishi haqida ma’lumot berib, quyidagi matla’li g‘azalini uning ijodidan namuna sifatida keltiradi:

Soqiy, biyo, ki g‘am shud-u osori g‘am namond,
Jome ba dast gir, ki davroni Jam namond.

Tarj.: Soqiy, qani, kel, g‘am ketdi-yu, uning asari ham qolmadi. Qadahni qo‘lga olki, Jamshid davroni qolmadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Давлатшоҳ Самарқандий. Тазкират уш-шуаро. – Теҳрон, 1338 (ҳ.-ш.); Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилди 1. – Душанбе, 1988.*

E.O.

VALIXONOV Amonullo-xon (Boqir) (1925–1986) – shoir, olim. 1925-y. Andijonda tug‘ilgan. Farg‘ona pedagogika institutining fizika-matematika fakultetini tamomlagan. Institutni bitirib, maktablarda matematika o‘qituvchisi bo‘lib ishlagan. V.A. matematika sohasida bir qancha ilmiy va metodik maqolalar muallifi: “Teskari doiraviy funksiyani o‘qitish”, “Beruniyning trigonometriya sohasidagi eng muhim ishlari”, “Al-Xorazmiyning tenglama yechish usullari”, “Ulug‘bekning astronomiya maktabi” shular jumlasidandir. 1958-y. dan Andijon Davlat pedagogika institutida ishlagan. Institutda 20 yil davomida katta o‘qituvchi, “Boshlang‘ich ta’lim uslubiyati” fakulteti dekan muovini, dekan, fizika-matematika fakulteti dekani lavozimlarida faoliyat yuritgan. V.A. ma-

tematik bo‘lishi bilan birga n.shunoslikka doir bir qator tadqiqotlar ham e’lon qilgan. Olimning “Navoiy – alloma”, “Navoiy va fan”, “Navoiy – musiqashunos”, “Xamsa saboqlari”, “Xamsa”-dagi falakiyotga oid ma’lumotlarning manbalari”, “Jomiy va Navoiy” maqolalari n.shunoslikning dolzarb masalalariga bag‘ishlangan. V.A. “G‘azal nafosati” (1985) nomli yirik ilmiy asari b-n ham n.shunoslik taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shgan. Adabiyotshunoslikda olimning ushbu kitobi yuksak baholangan.

Ad.: *Музайяна Амонуллахон (Боқир) қизи. Боқирнома – Андижон, 2006.*

M.A.

VALIXO‘JAYEV Boturxon – adabiyotshunos. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi (2000), O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi (1982), prof. (1971). V.B.ning ilmiy ishlari adabiyot tarixi, adabiyotshunoslik, adabiy aloqalar, tasavvuf va uning namoyandalari, Samarqand adabiy va ilmiy muhiti tarixi, Ibn Sino, Nizomiy, Jomiy, N. kabi olim va mumtoz shoirlarning ijodiga bag‘ishlangan. “O‘zbekiston adabiy-tanqidiy qarashlari tarixidan” (1960), “O‘zbek epik poeziyasi tarixidan” (1974), “Navoiy ijodi – ilhom manbai” (1991), “Xoja Ahror Vali” (1993), “Xoja Ahror tarixi” (1994) kabi ilmiy asarlar va bir necha o‘quv qo‘llanmalar muallifi.

V.B asarlari Rossiya, Afg‘oniston, Turkiya va Eronda nashr etilgan.

O‘tmish o‘zbek adabiyoti va uning yirik namoyandalari hayoti, ijodiy merosi, shuningdek, she’riyatimizning qator nazariy masalalari haqidagi yirik tadqiqotlar muallifi V.B. ayni zamonda, n.shunos olim sifatida ham barakali qalam tebratdi. N.ning ulkan adabiy-ilmiy merosini o‘rganish, shoir yashagan davr adabiy-madaniy hayotini tekshirish borasida qator muhim ilmiy xulosalarni bayon qildi. Olimning bir qator tadqiqotlarida (“Shoirning do‘sti”, “Sharq yulduzi”, №1, 1968; “Navoiy va Shayximbek Suhayliy”, “Navoiy va adabiy ta’sir masalalari” maqolalar to‘plami, – T., Fan, 1968; “Navoiy va Amir Shayxiy”, “Adabiy meros”, №12, 1979-y., “Navoiy va Qosim Anvor”. “O‘zbek tili va adabiyoti”, jurn. №5, 1984-y. va b.) ulug‘ o‘zbek shoirining fors-tojik adabiyotining o‘ziga zamondosh yirik namoyandalariga munosabati, ular b-n ijodiy aloqasi, asarlari o‘rtasidagi mavzuviy va g‘oyaviy yaqinlik masalalari birinchi bor keng va ilmiy jihatdan ishonarli ko‘rsatildi, ular she’riyati qiyosiy tahlil etildi.

V.B.ning ilmiy faoliyatida N.ning shoh asari “X.” va, umuman, Sharq adabiyotlarida xamsachilik an’analari kabi muhim ilmiy-nazariy muammolarga ham katta o‘rin ajratilgan. Uning “Xamsachilik an’anasisining ba’zi bir xususiyatlari haqida” (SamDU asarlari, yangi seriya № III, 1961); “XIX asr II yarmidagi o‘zbek poemachiligida Navoiy an’anasilari” (“Adabiyot va hayot” maqolalar to‘plami. Samarqand, 1961.). “Xamsachilik an’anasining ayrim xususiyatlari” (Navoiy va ijod saboqlari” maqolalar to‘plami), “Xamsa” takmili” (“Alisher Navoiy “Xamsasi kollektiv monografiyada. – T., “Fan”, 1986), “Navoiy “Xamsa”si zamondoshlari talqinida” (“Adabiy meros”, 1-2, 1986.) va “Navoiy “Xamsa”sining jahoniy shuhrati” (“Navoiy “Xamsa”-sini o‘rganish masalalarii maqolalar to‘plami. Samarqand, 1987) kabi yirik maqolalar N.ning dostonchilikdagi novatorligi va yuksak mahoratiga alohida urg‘u beriladi, g‘oyaviy-badiiy kamoloti va epik poeziya taraqqiyotidagi beqiyos roli dalillarda ko‘rsatiladi, ulug‘ dostonnavisning barhayot an’analari sinchkovlik b-n kuzatiladi. V.B.ning n.shunoslikdagi xizmatlari haqida so‘z borar ekan, uning “Alisher Navoiyning mo‘tabar dastxat devoni haqida” nomli maqolasini (“O‘zbek tili va adabiyoti”, №3, 1979; “Sharq yulduzi”, №7, 1979) alohida ko‘rsatish lozim. Bu maqolada u eronlik olima Badri Otoboyining “Fehristi devonhoi xatti” (– Tehron, 1976) kito-

bidagi ma'lumotlarga tayanib, ittifoqimizda birinchi bo'lib N.ning dastxati – avtografi haqida so'z yuritadi. Olim – Tehron qo'lyozmalar fondida N.ning o'z qo'li b-n kitobat qilgan "N.N." devonining nusxasi saqlanishini ma'lum qiladi, bu qo'lyozmaning ilmiy-tarixiy qimmatini ta'kidlab o'tadi. V.B.ning "Navoiy va uning izdoshlari talqinida tuyuq" ("Adabiy meros", – T., 1973), "Alisher Navoiyning "sayyor" she'riy miniatyuralarini qayta ishlashdagi mahorati" ("O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, №1, 1976) kabi maqolalarida ham n.shunoslikning muhim masalalari ko'tarilgan.

Ad.: *Валихўжаев Б. Шоирнинг дўсти. // Шарқ юлдузи, №1, 1968; Навоий ва Шайхимбек Суҳайлий. // Навоий ва адабий таъсир масалалари мақолалар тўплами, – Т., 1968; Навоий ва Амир Шайхий. // Адабий мерос. №12, 1979; Навоий ва Қосим Анвор. // Ўзбек тили ва адабиёти, журн. №5, 1984; "Хамсачилик анъанасисининг баъзи бир хусусиятлари ҳақида" // СамДУ асарлари, янги серия № III, 1961*; *XIX аср II ярмидаги ўзбек поэмачилигида Навоий анъанасилари // "Адабиёт ва ҳаёт" мақолалар тўплами. – Самарқанд, 1961; "Хамсачилик анъанасининг айрим хусусиятлари" (Навоий ва ижод сабоқлари" мақолалар тўплами // "Хамса" такмили" // "Алишер Навоий "Хамсаси коллектив монографияда. – Т., 1986*;

A.A.

VAMBERI Herman – (Vámbéry Ármin, Hermann Bamberger; 19.03.1832 – 15.09.1913) – vengriyalik tarixchi, etnograf. Yevropada birinchi marta 1867-y.i "Sagataiscke Sprachstudyien" asarini nashr etgan. Bu kitobda N. asarlari tili haqida ma'lumot bergan.

Vamberi Avliyo Georgiy gimnaziyasida o'qiydi, lotin, ingliz, nemis, fransuz, rus tillarini o'rganadi. Usmonli turk madaniyatiga qiziqishi ortidan 20 yoshida Turkiyaga ko'chib o'tadi (1852) va u yerda o'ziga to'q oila farzandlariga g'arb tillaridan saboq beradi, Fuod posha idorasiga ishga kiradi. Turk tarixchilarining asarlari tarjimalari tufayli Vengriya FA muxbir a'zosi bo'ladi. Vamberi Turkiyadan Markaziy Osiyo bo'ylab safar qiladi, Xiva, Buxoro, Samarqand, Qarshi, so'ngra Hirot, Mashhad orqali Turkiya, so'ng Yevropaga qaytadi (1861-64). Uning "Turkcha-nemischa lug'at" (1858), "O'rta Osiyo bo'ylab sayohat" (1864), "Chig'atoy tilidan qo'llanma" (1867), "O'rta Osiyo ocherklari" (1868), "Buxoro yoki Transaksoniya tarixi" (1873) kitoblari ana shu o'rganishlar natijasidir. N. haqida Vamberining "O'rta Osiyo ocherklari", "Chig'atoy tilidan qo'llanma" kitobida ma'lumot berilgan. "Abushqa"ni qisqartirilgan holda tarjimasi bilan nashr qilgan (1862). "O'rta Osiyo ocherklari"da N.ning she'riyat, tarix, mantiq, adab ilmiga doir 32 asar yozib qoldirganini ta'kidlaydi. "Qissayi Sayfulmuluk"ni ham N. asari deya xato berib o'tadi. "Chig'atoy tilidan qo'llanma" kitobida N.ning "M.Q." asaridan parcha, so'ng *"Ey ko'ngul, kelkim, ikov bo'lub nigore ko'zlali, / Sarv qadde istabon siymin uzore ko'zlali", "Ey, hamd o'lub mahol fasohat bila sanga, / Andoqki, qurbi taqvovu toat bila sanga", "Yordin ayru ko'ngul mulkedurur sultoni yo'q, / Mulkkim sultoni yo'q, jismedururkim, joni yo'q"* matla'si b-n boshlanuvchi g'azallari, "F.Sh." dostonidan parcha eski o'zbek yozuvida va nemischa tarjimalari bilan kiritilgan (173–187-betlar). "Qissayi Sayfulmuluk"dan ham parcha berilgan. Kitob davomidan N. asarlari u-n tuzilgan "Abushqa" va "Badoye' al-lug'at" haqida batafsil ma'lumot beradi, oxiridagi lug'atlarda N. asarlarida uchraydigan so'zlarning mazmunini ham izohlaydi. G'azallarda ayrim so'zlar xato o'qilgani, so'zlar tushib qolgani kuzatiladi. Xususan, "Ey, hamd o'lub mahol fasohat bila sanga" deb boshlanuvchi g'azal Vamberi tarjimasida 8 bayt, "Yordin ayru ko'ngul mulkedurur sultoni yo'q" g'azali 6 baytdan ibo-

rat. Umuman, V.H. O‘rta Osiyoni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan, o‘rgangan, Vengriyada turkshunoslikka asos solgan, darsliklar yozgan, N. ijodini nemis kitobxoniga tanishtirgan olimdir. Uning mazkur kitoblari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas.

Ad.: *Vambery. Çagataische Sprachstudien. – Leipzig, 1867; Herman Vamberi. Cagataische Sprachstudien enthaltend grammatikalischen Umriss, Chrestomathie und Worterburch der Cagataischen Sprache. – Leipzig, 1867; Исматуллаев Х. Вамбери олимми, жосус? “Фитна санъати” (2-китоб.). – Т., 1993.*

E.U.

VARQA’ – “S.I.” dostonida nomi zikr etilgan sarkarda. Doro Iskandarga qarshi urushga tayyorgarlik ko‘rish maqsadida o‘ziga qaram o‘lkalardan askarlar to‘plaganda, Misrdan qo‘shin b-n yordamga keladi:

Hamul Misrdin Varqa-u Boshdek,
Dog‘i Dasht elidin Temurtoshdek.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

M.A.

VASIYAT – o‘lim oldidan aytib qoldiriladigan gaplar, o‘lim oldidagi so‘z. N. ijodida ijtimoiy fikr va poetik talqinning betakror namunalaridan biri – bu shoir yozib qoldirgan o‘ttizdan ortiq V. lardir. “M.N.”dagi Mir Shohiy, Mavlono Kobuliy, Mavlono Lutfiy to‘g‘risidagi zikrlarda qalam ahli, ijodiy jarayon b-n bog‘liq V.lar tilga olinsa, “Xamsa” dostonlarida Layli, Majnun, Farhod, Shirin, Iskandar kabi bosh qahramonlar hayotining muhim jihatini ochib beruvchi V.lar talqiniga duch kelamiz. Farhodning toqqa aytgan V.ini V.ning klassik namunasi deb baholash mumkin. “N.M.”da ham o‘nlab V.larni o‘qishimiz mumkin, ammo hamma u-n ibrat bo‘ladigan V.lardan biri bu – Jaloliddin Rumiyning o‘n bir hikmatdan iborat vasiyati. N. ning “T.A.H.” va “T.M.A.” kabi tarixiy asarlarida ham o‘ziga xos yigirmaga yaqin V.lar b-n tanishamiz – ular orasida eng yorqin namuna sifatida “T.M.A.”dagi No‘shiravoni odilning adl, adolat va xiradmandlik b-n bog‘liq V.idir.

N. ijod qilgan V. va V.nomalardan an’anaviysi va eng mashhuri, bu – “S.I.” dostonida tasvirlangan bosh qahramoni shoh Iskandarning onasiga yozgan V.nomasi va a’yonlariga aytgan vasiyatidir. N. mazkur V.nomani dastlab “S.I.” dostonida emas, balki “X.”ning birinchi dostoni “H.A.”ning “Iskandarning yetti iqlim mamolikin panjayi tasarrufig‘a kiyurg‘oni va xolislik bila olamdin rihlat markadin surg‘oni...” bobida tasvirlagan:

O‘rtadi chun bo‘yla zavoli ichin,
Bu so‘z ila ayladi xoli ichin –

Kim, bu nafaskim boradurmen zalil,
Navbati shohiy manga ko‘si rahil.

Qaysig‘akim sharti hamiyat durur,
Mendin anga ushbu vasiyat durur.

N. ijod qilgan V.larda ulug‘ shoirning ko‘p yillik hayotiy xulosalari aks etgan. Ayni vaqtda V.ga badiiy adabiyotda adabiy janr deb qaralmoqdaki, bunday qarash N. ijod qilgan vasiyatlarga ham taalluqlidir.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Навоий асарлари луғати. – Т., 1972; Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Т., 2006; Юридик атамалар қомусий луғати. – Т., 2003; Ганиева С. Ҳазрати Навоий васияти. – Т., 2011; Адабий турлар ва жанрлар. 3 жилдлик, 2-жилд. – Т., 1992; Ражабова Б. Навоий ижодида тарихий-ҳуқуқий атамалар. Ўзбек тили ва адабиёти. 2014. № 4.*

B.R.

VASL (ar.) – ko‘rishish, orzu etgan kishisi b-n uchrashish, uning diydoriga to‘yish, shu uchrashuv b-n bog‘liq niyatlarning amalga oshuvi. V.ning ko‘pligi vusul. V., visol Sharq she’riyatida ko‘pincha sevishganlarning, ya’ni oshiq va ma’shuqlarning uchrashuvi, bir-biri b-n qovushishini bildiradi. Abduljamil kotib “Tuhfat us-salotin” tazkirasida N.ning “X.M.” devoniga kirgan g‘azallarni 45 mavzuga bo‘lib, tasnif qilar ekan, visol mavzusidagi she’rlarni “visol iltimosida”, “visol shukrida” deb guruhlaydi. N.ning:

O‘tgan kecha men erdim-u ul siymtan erdi,
Gulshan to‘rida maskanimiz bir chaman erdi...

Kimsa yori birla xushtur g‘am
deyishib mungrashib,
Yotsa gohi chirmashib, o‘ltursa gohi yondashib...

Ne xush bo‘lg‘ay ikkovlon mast
bo‘lsak vasl bog‘inda.
Qo‘lum bo‘lsa aning bo‘ynida-yu
og‘zim qulog‘inda...

kabi matla’lar b-n yozgan g‘azallari shu mavzudadir.

N. she’riyatida V. mavzusining ko‘lami keng. “X.” dostonlaridan “H.A.”ning vafo haqidagi bobida N. yorining V.iga erishgan odamni dunyodagi eng baxtli odam deb biladi va bunday baxtiyor juftlik u-n shoir jonini sadqa qilishga tayyor:

Har kishi bir yor iladur ko‘ngli shod,
Xayli maloikdin anga “inyakod”.

Vasli ila kimki erur bahramand,
Jonim aning boshig‘a bo‘lsun sipand.

V. tasvirining eng yuksak badiiy tasviri “L.M.” dostonida namoyon bo‘lgan. Rasmiy kuyovi – Ibn Salomdan ko‘ngli to‘lmagan, uni hech qachon sevmagan Layli hamda eng yaqinlarining iltimosiga ko‘ra Navfal qiziga uylanishga rozilik bergan Majnun Navfal qizining sevgilisi borligini bilgach, go‘shangadan qochib ketadilar va biyobonda uchrashadilar. Ularning uchrashuvini N. bu epizod tasviriga bag‘ishlangan bobning nasriy sarlavhasida shunday ta’riflaydi: “Falak zoli musha’bidlig‘ining buqalamunlug‘i Majnunni Navfal qizi visolig‘a yetkurmasdin burun ayirg‘ondek, Laylini dog‘i Ibn Salom malolatidan salomat ayirib, hajr qaro tunida ikki nomurodni murodg‘a yetkurgoni va badansiz ruhni ruhsiz badang‘a kivurgoni va ruh bila badan vasli muyassar bo‘lg‘och, tig‘i firoq surgoni va ul suv bila bu visol o‘tin o‘churgoni”.

V. N. va boshqa shoirlarning she’riyatida majoziy ma’noda biron yaxshi maqsadga, yorug‘likka, muvaffaqiyatga erishish ma’nosida ham kelgan. Tasavvuf adabiyotida ishq majoziy ma’noni bildirganidek, V. ham Xudo b-n yuzlashish, uning diydoriga muyassar bo‘lish, u b-n birlashish g‘oyalarini anglatadi. N.ning tasavvuf ruhidagi she’rlarida ham ana shunday mazmunlar ifodalangan. N. “N.Sh.”dagi bir g‘azalida deydi:

Sening xayoling ila xonaqohda hoy ila huy,
Sening visoling u-n dayr ichinda nola-yu voy.

Quyidagi baytda ham N. foniylikka yuz o‘girmasdan turib, kishi o‘lgandan keyin erishadigan abadiy baxtga erisha olmaydi, – deyishi b-n, V.ni tasavvufiy ma’noda qo‘llagan:

Ey Navoiy, davlati boqiy tilarsen vaslidin,
Oni kasb etmas fano bo‘lmay ne imkon oqibat.

Ad.: *Алишер Навоий. Наводир ушшабоб. ТАТ. 10 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-жилдлар. – Т., 2011.*

Ab.H.

VASLIY – N.ga zamondosh shoirlardan biri. N. “M.N.” tazkirasining to‘rtinchi majlisida V. haqida ma’lumot berar ekan, uning Xoja Kalon degan qozining o‘g‘li ekanini, otasini aqlli va bir so‘zli bo‘lgani u-n hirotliklar hurmat qilishini yo-

zadi. “M.N.”ning birinchi tarjimoni Faxriy Hirotiy V.ning asl ismi Abdurahmon ekanini, otasi vafotidan keyin uning o‘rniga o‘ltirganini xabar qiladi.

N. V.ning qobiliyatli yigit bo‘lganini ta’kidlaydi (“O‘zi xeyli salohiyatlik yigitdur”). Ulug‘ shoir uning odamiyligi, xushsuhbatligi, xushtab’ligi haqida ham g‘oyat yaxshi fikrlar bildiradi. Uning shatranjning kabir va sag‘ir turlarini yaxshi o‘ynashi ham N. nazaridan chetda qolmagan. N. V.ning quyidagi baytini she’rning yaxshi namunasi sifatida keltiradi:

Maro dar dida nur az gardi rohi on sipoh omad,
Bihamdilloh, ki nuri chashmi
man az gardi roh omad.

Tarj.: Mening ko‘zim u sipohning yo‘li changidan ochildi; Xudoga shukurki, ko‘zim (sevgilimning) yo‘li to‘zonidan ko‘radigan bo‘ldi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

M.A.

VASLIY SAMARQANDIY (taxallusi; asl ismi Mullo Sayidahmad (1869–1925, Samarqand) – zullisonayn adib. U Samarqand, Buxoro, Toshkent madrasalarida tahsil olgan, bir muddat Buxoroda mudarrislik ham qilgan. Yangi usuldagi ta’lim tarafdorlaridan bo‘lgani u-n mutaassiblar ta’qibiga uchrab, Samarqandga qaytadi hamda Shohizinda va Orifjonboy madrasalarida dars beradi.

V.S.ning adabiy merosi nihoyatda boy va rang-barang bo‘lib, to‘liq bo‘lmagan ma’lumotlarga ko‘ra, undan bizgacha 12 ming bayt hajmidagi she’riy asarlar va 25 ta ilmiy maqola va risola yetib kelgan. Jumladan, “Armug‘oni do‘ston” devonidan (Samarqand, 1909) tojikcha (7000 bayt), “Tuhfat ul-ahbob” devonidan (Toshkent, 1913) o‘zbekcha (4000 bayt) she’rlari joy olgan. Tasavvufiy mazmundagi “Nazm us-silsila” asari keyingi yillarda Toshkent va Tehronda chop etilgan. Shuningdek, “Naf’ ut-tolibin” (“O‘quvchilar manfaati”), “Adab ud-din yoxud milliy she’rlar”, “Ta’lim va bildirmoqning foydaluv o‘lmog‘i” asarlari, “Al-kalom ul-afxam fil manohib il-Imom si-A’zam” (“Imomi A’zam hayoti haqida qimmatli so‘zlar”) nomli tarjimasi mavjud. Umrining oxirida yozgan she’rlarini to‘plab, “Devoni avoxiri umr” (“Umr oxiri devoni”) devonini tuzgan bo‘lsa-da, u hozirgacha topilmagan.

U ma’rifatparvar adib sifatida “Turkiston viloyatining gazeti”, “Sadoyi Farg‘ona”, “Sadoyi Turkiston” gazetalari, “Al-isloh” jurnali bilan hamkorlik qilgan.

N.ning boy va rang-barang adabiy merosi o‘zi ham sermahsul va serqirra iste’dod sohibi bo‘lgan V.S.ning ijodiy takomilida muhim o‘rin tutadi. U buyuk salafi g‘azallaridan ilhomlanib. ularga tatabbu’lar qiladi, taxmislar bog‘laydi. Lekin u o‘z tatabbu’larida vazn va radifni saqlab qolsa-da, qofiya tizimini o‘zgartiradi va shunga muvofiq mavzu ham yangicha o‘zanda davom etadi. M-n, N.ning:

Ko‘ngul ko‘zlar yo‘lin tutmoqqa
hajringda shitob aylar,
Birin tutquncha birning sayli olamni xarob aylar,

matla’si b-n boshlanadigan g‘azalidan ilhomlanib, “Tag‘oful ko‘rsatib ul lolarux bag‘rimni dog‘ aylar” misrasi b-n boshlanadigan ohorli g‘azal bitgan bo‘lsa, “Solib qon oncha dog‘ bu jismi figor ichra” va “Niholi qadding eldin jon olur nogzuk xirom ichra” misralari b-n boshlanadigan g‘azallari baxsh etgan ilhom natijasi o‘laroq:

Qadingdek sarv-u mavzun yo‘q aslo bo‘ston ichra,
Aliftek qomatingni kilki qudrat chekti jon ichra, –

matla’li betakror g‘azal yaratadi.

V.S. N.ning qator g‘azallariga taxmislar ham bog‘lagan. M-n, “Paydo” radifli g‘azaliga bog‘lagan taxmisida o‘z dard-u g‘amlarini, ko‘ngil kechinmalari, zamon muammolarini ulug‘ ustozi fikrlari b-n omixta qilib yuboradi:

Huvaydo bo‘ldi jondin ohu
ko‘nglumdin fig‘on paydo,
Na tab’imda farah hozir, na dardimga amon paydo,

Vujudim toyirig‘iga ne makon, ne oshiyon paydo,
Manga ne manzil-u ma’vo ayon,
ne xonumon paydo,

Ne jonimdin asar zohir,
ne ko‘nglumdin nishon paydo.
Jahon ahli havaspaymo erur to‘li amaldinkim,

Ne hojat go‘shmolin aylasam zarbulmasaldinkim,
Ne deb aylay shikoyat, Vasliy, taqdiri azaldinkim,

Sanga jon shavqidin berdi Navoiy, yo‘q ajaldinkim,
Ajal topquncha ermas ul zaifi notavon paydo.

Ma’lum bo‘ladiki, V.S. N.ning his-tuyg‘ulariga ta’sir qilib, ilhom bag‘ishlagan g‘azallariga tatabbu’lar qilgan, qalbida aks sado bergan g‘azallariga taxmislar bog‘lagan.

Ad.: *Абдуллаев В. Танланган асарлар. 2 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2002; Энциклопедияи адабиёт ва санъат тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988; Муҳиддинова Б. Василий Самарқандийнинг адабий ижтимоий фаолияти // “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2012, 1-сон.*

E.O.

VATAD (ar. – qoziqcha) – 2 mutaharrik va 1 yoki 2 sokin harf (1 cho‘ziq yoki o‘ta cho‘ziq va 1 qisqa hijo)dan tashkil topgan ritmik bo‘lak, juzv. Hijolarning o‘rniga ko‘ra V.lar majmu’ (birikkan) va mafruq (ajralgan)qa bo‘linadi. N.ning “M.A.”da yozishicha, “Vatadi majmu’ ul lafzedur: ikki burunqi harfi mutaharrik va bir so‘ngqi harfi sokin, andoqkim *shajar* va *samar* va *Xo‘tan* va *Adan*. Vatadi mafruq va ul lafzedur: burunqi va so‘ngqi harfi mutaharrik va o‘rtanchi harfi sokin, andoqkim, *xoma* va *noma* va *noqa* va *foqa*”.

V.lar sabab va fosilalar b-n birikib, ko‘pincha asl va zihofli ruknlarni hosil qiladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

E.O.

VAFOIY – Q.: Ahmad Hojibek.

VAFO (Vafoiy) **(**XVII asr oxiri – Xorazm – XVIII asr boshlari) – shoir. Tarjimayi holi haqida, deyarli, ma’lumotlar saqlanib qolgan. Munisning “Firdavs ul-iqbol” asarida ma’lumot berishicha, Anushaxonning o‘g‘li Arangxon zamonida yashagan. Bir muddat uning saroyida xizmat ham qilgan. Nodiri zamon va shirinkalom shoir edi. Bu haqda uning o‘zi faxr b-n “Borgohi bazmi maydon nodir suxanvariman”, deb yozadi. Xon b-n hazil-mutoyiba qiladigan darajada yaqin bo‘lgan. Badihago‘ylikda tengi yo‘q edi. Shoirning hozirjavobligi b-n bog‘liq qator hikoyatlar xalq ichida tildan-tilga o‘tib yuradi.

Lekin “Muxammasi Vafoiy”dan ma’lum bo‘lishicha, bir tuhmat b-n xon va shoir munosabatlariga darz ketgan (“Bir cho‘qli tuhmatidin bo‘ldi nizo’ aroda”). Arangxondan keyin hokimiyat tepasiga kelgan Jo‘jixon, Valixon kabi xonlar ham unga e’tibor qaratishmagan. Shundan so‘ng Arabxon madrasasida yashagan. Dunyoga mayli bo‘lmay, hujrasida bir parcha bo‘yradan boshqa bisoti yo‘q edi. U iste’dodli shoir bo‘lishi barobarida mohir naqqosh va usta me’mor ham bo‘lgan. Xiva shahridagi bir qancha go‘zal binolar, jumladan, ko‘rinishxona uning bevosita rahbarligi va ishtirokida qurilgan. Devoni hozirgacha topilgan emas. O‘zR FA Sharqshunoslik institutidagi 7054 raqamli qo‘lyozma bayozga bir qancha she’rlari kiritilgan.

N.ning “Sensizin, ey umr, bir soat mango jon bo‘lmasun” misrasi b-n boshlanadigan g‘azaliga bog‘lagan taxmisi bizgacha yetib kelgan. U V. ning buyuk salafi “panjasiga panja” ura olgani, munosib jo‘rovozlik qilib, fikr-u tashbehlarini rivojlantira va to‘ldira olganini ko‘rsatadi. M-n:

Din-u imonimni toroj etti oxir bir go‘zal,
La’li Iso, xatti Xizr-u ko‘zlari kofir masal,
Qismat etmishdur mango bu nav’ qassomi azal,
Ishqida jonim uqubatlar bila ol, ey ajal,
To oning oshiqlig‘i hech kimga oson bo‘lmasun.

Fuzuliydan ilhomlanib, uning ham qator g‘azallariga muxammas yozgan.

Ad.: *Вафоий. Мухаммаслар // Асрлар нидоси. – Т., 1982; Мунис. “Фирдавс улиқбол”дан // Ўзбек адабиёти тарихи хрестоматияси. 2-жилд. – Т., 1945; Абдуллаев В. Танланган асарлар. 2 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2002; Айёмий. Ўт чақнаган сатрлар. – Т., 1983.*

E.O.

VAQF (ar. – ko‘pligi avqof) – diniy muassasalarga (masjid, madrasa, mozor, xonaqohlarga) qarashli mulk. Ularni qurdirgan shaxslar, shuningdek, boshqa kishilar Xudo yo‘liga, savob u-n o‘tkazib bergan (hadya qilgan) va odatda, yer, bog‘, do‘kon, koriz singari daromad keltiruvchi ko‘chmas mulk shaklida bo‘lgan. Mulkning V. qilingani haqida maxsus hujjat (vaqfnoma) tuzilgan va qozilar tomonidan tasdiqlangan.

N. ham mol-mulkining salmoqli qismini o‘zi qurdirgan “Ixlosiya” madrasasi va “Xalosiya” xonaqohiga vaqf qilgan. Uning “V.” asari shu munosabat b-n yozilgan.

N. davlat arbobi sifatida V. institutining ahamiyatini yaxshi tushungan. Shu sababli u o‘z faoliyatida vaqf mulklariga, ularning holatiga e’tibor qaratgan. N. asarlarida uchraydigan qaydlar shundan dalolat beradi. “M.Q.”ning sadrlar haqidagi faslida N. V.larga qarash, obod qilish sadrlarning vazifasi ekanini ta’kidlaydi. “Masnaviy” (Sayyid Hasanga maktub)da Sulton Abusaid zamonida sadrning V. mulklarini o‘zlashtirgani fosh qilinadi. N.ning bu masalaga munosabati “M.”dagi bir maktubda yaqqol ko‘rinadi. Unda mazkur yo‘nalishda nima ishlar qilinishi lozimligi aniq ko‘rsatiladi: “Yana ulkim, sudurg‘a hukm bo‘lsakim, viloyat avqofidin xabardor bo‘lsalar, buzulg‘onni tuzatsalar, mutag‘alliba ilgida bo‘lsa chiqarib, hosilin masrifig‘a yetkursalar. Bu ishlarkim sudurg‘a buyurulur, Xoja Falong‘a dag‘i hukm bo‘lsakim, alar ishidin xabardor bo‘lub alarg‘a madadgorlig‘da taqsir qilmasa”. Bu o‘rinda muallifning “mutag‘alliba ilgida bo‘lsa, chiqarib, hosilin masrifig‘a yetkursalar”, degan so‘zlari alohida diqqatga sazovordir. Ayrim mansabdorlar, boy kishilar turli yo‘llar b-n V. mulklarini egallab olishga intilganlar. N. bu o‘rinda ana shunday hollarda mulkni ularning tasarrufidan chiqarish va uning daromadlaridan foydalanish lozimligini ta’kidlamoqda. Bu bejiz emas, zero V. mulklaridan keladigan daromad talabalarning, mudarrislar, olimlar, diniy muassasalar xodimlarining ijtimoiy ta’minoti, ijtimoiy himoyasi u-n sarflanar edi. Ularning oyligi ham shu hisobdan berilgan, boshqacha qilib aytganda, jamiyatdagi bir qator ijtimoiy qatlamlarning turmushi, yaxshi yashashi V. mulklarining holatiga, undan kelayotgan daromadga bog‘liq edi. Binobarin, yuqoridagi so‘zlarda ulug‘ shoir va davlat arbobiga xos insonparvarlik yana bir bor o‘z tasdig‘ini topganini ko‘rishimiz mumkin.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Вақфия. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Муншаот. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Т., 1967; Эргашев Қ. Некоторые аспекты государственной деятельности Алишера Навои. – Т., 2009.*

Q.E.

“VAQFIYA” – N. qalamiga mansub 2 qismdan iborat nasriy asar. 1481-y.da shoir o‘z molmulkining bir qismini vaqf qilgani munosabati b-n yozilgan.

Ma’lumki, shu yili Hirot shahrida Injil arig‘i yoqasida N. tomonidan barpo etilayotgan masjid, madrasa va xonaqoh qurilishi nihoyasiga yetgan edi. Bu masjid va “Ixlosiya”, “Xalosiya” nomlari b-n atalgan madrasa va xonaqoh u-n N. katta daromad keltiruvchi yerlar, bog‘ va do‘konlarni vaqf qilgan. Bunday hollarda, odatda vaqfnoma tuzilar va u qozilarning muhrlari b-n tasdiqlanar edi. Lekin N. “V.”si bunday vaqfnomalardan tubdan farq qiladi, ya’ni u faqat vaqf hujjatigina

emas. “V.”ning mahdudod, ya’ni vaqf qilingan mol-mulk sanab o‘tilgan qismi atigi bir necha sahifani egallaydi va asar umumiy hajmining o‘ndan birini tashkil etadi, xolos. Asarning asosiy qismi shoirning o‘z hayoti va faoliyati haqidagi o‘ylari, ta’bir joiz bo‘lsa o‘tgan umri sarhisobi (shu yili N. 40 yoshga to‘lgan edi), kelajakdagi orzu-maqsadlari bayonidan iborat. Bundan tashqari, muallifning davlat arbobi sifatidagi qarashlari, o‘z davrning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotiga doir fikrlari ham mazkur qismdan o‘rin olgan. Shunday qilib, “V.” bir tomondan, mulkiy munosabatlarga doir hujjat, davrning iqtisodiy hayoti va munosabatlari haqida ma’lumot beruvchi manba; ikkinchi tomondan, tarixiy-avtobiografik va badiiy nasr xususiyatlarini o‘zida mujassam etgan adabiy yodgorlik, so‘z san’atining, badiiy ijodning o‘ziga xos namunasi.

N. “V.”ni yaratar ekan, bir nechta maqsadlarni ko‘zda tutgan va ularni muvaffaqiyat b-n amalga oshirgan. Hayoti va faoliyati haqida yozar ekan, N. davlat arbobi sifatida o‘zi amal qilgan qoida va tamoyillarni bayon qiladi. Asarning bu o‘rinlari davlatchilik va ijtimoiy fikr nuqtayi nazaridan katta ahamiyat kasb etadi, xususan, muallif sanab o‘tgan quyidagi tamoyillar diqqatga sazovordir: a) o‘z hukmdoriga sodiqlik; b) o‘z shaxsiy manfaatini ko‘zlamaslik, har qanday holatda ham xalq va davlat manfaatini yuqori qo‘yish; v) hirs-u havas, nafs-u havolardan tiyilish; g) adolat o‘rnatish va zulmga qarshi kurash; d) odamlarning hojatini chiqarish, xalqqa beminnat xizmat qilish. Bunda, ayniqsa, adolat, zulmga qarshi kurash haqida so‘z ketganda N. kuchli pafos, dard-alam b-n qalam tebratadiki, bu hol mazkur o‘y-xayollar, fikr-mulohazalar muallifda hozirgina tug‘ilmagani, ular N.ni anchadan beri qiynab, qalbini yaralab kelganidan, shoir ularni izhor qilish ehtiyojini sezgani hamda bu niyatini “V.”da amalga oshirganidan dalolat beradi.

Asardagi muallifning orzu va rejalari haqidagi qism ham alohida ahamiyatga molik. Muallif his-tuyg‘ularining teran ifoda etilgani, o‘zgacha bir badiiyatga ega ekani b-n ajralib turuvchi ushbu qismda N. o‘zining hajga borish va yangi-yangi, go‘zal asarlar yaratishdan iborat ikki orzusini bayon qiladi. “V.”ning bu o‘rinlari bizga faqat N. ning rejalari, ijodiy niyatlari haqida ma’lumot beribgina qolmay, uning ruhiy dunyosining naqadar boy va go‘zal ekanini, shoirning sof va ezgu niyatlar va buyuk orzular b-n yashaganini ko‘rsatadi, uning oliyjanob va ulug‘vor siymosini yanada to‘laroq tassavvur etishimizga xizmat qiladi.

Asarda N. barpo ettirgan binolar (“Ixlosiya” madrasasi, “Xalosiya” xonaqohi, “Dor ul-huffoz” gumbazi, “Jome’ masjidi”) haqidagi ma’lumotlar ham keng o‘rin olgan. Mahdudod bo‘limida vaqf qilingan mulklar sanab o‘tilgan. Ularning bir qismini tim va timchalar, do‘konlar tashkil etsa, qolgan qismi ekinzor yer va bog‘lardan iborat. Shuningdek, ikki koriz va bir kent ham vaqf qilingan mulklar qatorida qayd etilgan, ularning joylashgan yeri, ekinzor va bog‘larning esa maydoni (jerib hisobida) ko‘rsatilgan. “Arbobi vazoif” faslida mudarris va talabalarga belgilangan maoshlar aniq miqdorda ko‘rsatilgan: ikki mudarrisning har biriga yillik maosh bir ming ikki yuz oltin, shuningdek, natura hisobida 24 yuk g‘alla, 22 talabadan a’lo o‘qigan oltitasiga har oyda 24 oltin, undan tashqari bir yilga besh yuk bug‘doy; o‘rta bahoga o‘qiganlarga oylik 16 oltin, bir yilda besh yuk bug‘doy; past bahoga o‘qiganlarga oylik 12 oltin va g‘alla uch yuk. Xuddi shu tarzda hofizlar, Shayx, imom, farrosh va xodimlarning maoshlari belgilab qo‘yilgan. “Ravotib” qismida Ramazon oyida, hayit kunlari pishirib, xaloyiqqa tarqatilishi lozim bo‘lgan taom va oziq-ovqatlar, “Sharoit” qismida madrasa ahli u-n sotib olinadigan kiyimlar, idish-tovoq va ro‘zg‘or asboblari, madrasa hududini tozalash va ta’mirlashga oid qoidalar bayon etilgan. Mana shu qismlarini istisno qilganda (yuqorida aytilganidek, ular asar matnining atigi o‘ndan birini tashkil qiladi) asarning asosiy qismi N.ning boshqa bir qator asarlari singari badiiyat unsurlari b-n bezalgan, saj’, turli san’atlardan foydalangan holda bitilgan.

“V.”da Husayn Boyqaroning shohlik siyosatiga oid ma’lumotlar ham bor. M-n, Husayn

Boyqaroning saltanat taxtini egallagach, dastlabki tadbirlar qatori o‘z qo‘l ostidagi turli tabaqa, har xil urug‘ va qabilalarga bo‘lgan munosabatni ancha xolis va to‘g‘ri belgilaganiga e’tibor qaratadi. Bu tadbir N. davri u-n muhim masala edi. Zero, bu urug‘ va qabilalar orasidagi nizo va ixtiloflarni bartaraf etishda muhim ijobiy qadam edi.

“V.”da N. saroydagi faoliyati naqadar murakkab sharoitda kechganini quyidagi ruboiy orqali bayon etadi:

Shah xizmatig‘a birovki bo‘lg‘ay moyil,
Ko‘r-u kar-u lang-u shol keraktur hosil.
Asrorining ifshosida gung aylasa til,
Bu mushkul erur, barchasidan bu mushkul.

“V.” nasrning yorqin namunasidir. Unda memuar xarakterdagi parchalar, badiiy lavhalar – she’rlar ham bor. Aksar hollarda asosiy maqsad muallifning ruhiy kayfiyati, lirik tasvirlar, tashbeh, mubolag‘a, tafrit (litota) kabi badiiy san’atlar vositasida beriladi. (M-n, N.ning Husayn Boyqarodan so‘ragan ikki iltimosi).

“V.”da N. adolat va ezgulik yo‘lida faol harakatda bo‘lgan mohir tashkilotchi va ilg‘or fikrli, insonparvar hamda ma’rifatparvar arbob sifatida namoyon bo‘ladi. Uning ruhiy holatidagi o‘zgarishlar serqirra faoliyati b-n chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu faoliyat haqqoniy voqe’lik va ijtimoiy sharoit hamda munosabatlar b-n aloqador holda kechgani aks etgan. V. XV asr madaniy va iqtisodiy hayoti tarixini va N. biografiyasining ko‘p qirralarini o‘rganishda muhim hujjatdir.

Ad.: *Алишер Навоий. Вақфия. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ўзбек адабиёти тарихи. II том. – Т., 1977; Набиев Р.Н. XV асрда Мовароуннаҳрнинг сиёсий-иқтисодий ҳаётидан. Улуғ ўзбек шоири (тўплам). – Т., 1948; Зоҳидов В. Вақфия // Шарқ юлдузи, 1974; Эргашев Қ. “Вақфия”нинг услубий хусусиятларига доир.*

S.G‘., Q.E.

VAHDAT (ar.) – birlik, yakka-yu yagonalik, tanholik ma’nolarini anglatadi. Tavhid istilohi b-n ham qo‘llanadi. Allohning birligi, vahdoniyat. Shuning u-n ham Allohga “vahdati vujud” deyilgan, ya’ni U borliqning birligidir. Haqni tanimoq, butun mavjudotning yaratuvchisi tanho ekanini bilmoq, yakka-yu yagonaligiga ishonmoq tavhiddir. Ishq otashida yongan oshiq “ikkilik”, ya’ni “men” va “sen”ni tark etadi, insonda kasrat vahmi mavjud ekan, tom ma’nosi ila Mavlosini taniy olmaydi. Chunki “men” va “sen” aqidasi b-n yashash – V.ni inkor etishdan boshqa narsa emas. Insonning jon va tani ishq o‘tida yonganda “ikkilik” o‘rtadan ko‘tariladi, shundagina tavhid asroriga yetishish mumkin. N. tavhidga erishgan solikning ko‘zi “Bir”ni ko‘rishi, qulog‘i “Bir”ni eshitishi, tili “Bir”ni so‘zlashi haqida shunday deydi:

Bir bo‘l-u bir ko‘r-u bir de, bir tila,
Mayl qilma munda ikkilik bila.

Ikkilik bu yo‘lda ahvolliqdurur,
Sirri vahdatdin mu’attalliq durur.

Abjad hisobi bo‘yicha “alif” “bir”ni ifodalaydi, Allohning yakkayu-yagonaligini anglatadi. Yusuf (a.s.) go‘zalligi b-n nom taratgan payg‘ambar bo‘lib, tasavvufda u V. – birlik maqomining ramzidir. Uning Kan’ondan Misrga kelib sulton bo‘lishida kasratdan V.ga yetishgan insoni komil timsolini ko‘rishgan. Yusuf (a.s.)ning zindondan qutulishi, qullikdan sultonlikka ko‘tarilishi kasratdan V.ga o‘tishi, deb qaralgan. Qullikdan sultonlikkacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tishi esa sayri sulukda vujuddan ruhga tomon harakatni anglatadi.

Ad.: *Ҳаққул И. Тасаввуф ва шеърият. – Т., 1991; Жумаева С. Рақам, маъно ва тасвир. – Т., 2005.*

I.H., S.J.

VAHDAT MAYI (vahdat sharobi, mayi tavhid) – Allohning yagonaligini his qilish ma’rifatiga erishtiradigan ilohiy may. Haq ishqi va jazbasi. Haq

zotida har qanday moddiy bog‘liqliklardan tamomila uzilish.

N. g‘azallarida ham V.M. bodayi vahdat istilohlariga ko‘p duch kelamiz. M-n, quyidagi baytida vahdat va kasratni o‘zaro qiyoslab, vahdat bu − haqiqat ahlining mayi, kasrat − esa ko‘ngilga yuzlanadigan g‘amdir deydi:

Valek ahli haqiqatg‘a may erur vahdat,
G‘am ushbu kasrat erurkim,
qilur ko‘ngulga xutur.

Ushbu baytda V.M. vujudingni fano qilmaguncha fano dayri ahlida yangidan baqo topmaysan, degan fikrni ilgari suradi:

Topmag‘ung dayri fano ahlida yong boshtin baqo,
Qilmag‘uncha bodai vahdat vujudingni adam.

Ma’lum bo‘ladiki, N. V.M. orqali ilohiy ma’rifatning eng oliy darajasini nazarda tutadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005; Хожа Аҳмад Яссавий. Девони ҳикмат (Нашрга тайёрловчи Н. Ҳасан). – Т., 2004; Донишмандлар туҳфаси. – Т., 2009.*

E.O.

VAHDATI VUJUD – vujudning birligi demak. Allohdan boshqa borliq yo‘qligini bilish shuuriga sohib bo‘lishdir. V.V. maslagiga ko‘ra, hamma narsa toq vujud bo‘lmish Allohning turli-tuman tajalliylari, zuhurlari, taxayyullari va ko‘rinishlaridan boshqa bir narsa emasdir. V.V. mohiyati zavq ila kashf etilib, yashash yo‘li b-n bilinadi, mushohada etiladi.

V.V. ta’limotining asoschisi Muhyiddin ibn Arabiydir. “Fusus ul-hikam”, “Futuhoti makkiyya” nomli yirik asarlarida Arabiy o‘z ta’limotining tub mohiyatini atroflicha yoritib bergan. N. Ibn Arabiy ilmiy-irfoniy merosini ustozi Abdurahmon Jomiy ko‘magida o‘qib o‘zlashtirganini “X.M.” kitobida qayd qilib o‘tgan. N. she’riyatida V.V. tushunchalarining talqin qilinishida naqshbandiylik tariqatining b. yirik vakillari ham ta’sir o‘tkazgan.

Ibn Arabiyning talqini bo‘yicha, “Haq toq borliqdir, faqat suratlarning ko‘pligi jihatidan olamdir. Olam, asil mutlaq borliqqa ko‘ra, keyin bino etilgan va Haqning tashqarisida – Uning soyasidir...”

Bunday qarashga qarshi chiqqan vahdati shuhudchi Imom Rabboniyga ko‘ra esa, borliq yolg‘iz Allohning borlig‘idan iborat emas. Xoliq bor va u yaratgan maxluq (maxluqot) bor. Alloh qarshisida bu olamning ham haqiqiy borlig‘i bor. V.V.da ilgari surilgan olamning mavjudligi faqat xayoliy va mavhumdir. Hamma narsa yolg‘iz mutlaq borliqdan iborat erur. Tushuncha to‘la qabul qilinsa, nainki olam, ashyo, balki inson va irodaning inkorigacha borish mumkin. “Unda mezon va mukofot, mabda va maod, xayr va sharrning ma’nosi qolmaydi”.

N. faqri fano holiga qattiq suyangani u-n V.V. sir-asrori b-n teran qiziqqan va mutasavvif shoir sifatida uning ilhom manbalaridan biri ham shu ta’limotdir.

Ey Navoiy, solik ersang, Haq vujudin bil vujud,
Mosivallohni – adam. Vallohi a’lam bissavob.

Ad.: *Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011;*

I.H.

VAHIY (ar.) – lug‘aviy ma’nosi: yumshoq so‘z, xabar; ilhom berish, boshqalardan berkitib, boshqa bir kishiga aytilgan maxfiy so‘z, ramz, ko‘rsatish va imolar orqali birovga zudlik b-n qilingan ishora va h.k. Islom dinida V. deb, Alloh taoloning o‘z payg‘ambarlariga farishtalar orqali yuborgan buyruq yoki ko‘rsatmalariga aytiladi. Payg‘ambarlarga ilohiy V.ni, asosan, Jabroil (a.s.) olib kelgani u-n u V. farishtasi deyiladi. *(Q.: Jabroil (a.s.)*

N.ning “T.A.H.” asari orqali ham bilamizki, payg‘ambarlarga V. orqali ko‘rsatmalar bo‘lgan

va ular ilohiy amrni doimo so‘zsiz bajarishgan*: “...Idris alayhissalom suryoniy payg‘ambardur. Otasi Yazid zamonida butparastliq shoy’e bo‘ldi. Anga vahy keldikim, ul elni butparastliqdin man’ qilg‘ay”. “... mazkur-bo‘lg‘on tarixda Muso alayhissalomg‘a vahyi keldikim, Horun alayhissalomg‘a ajal yetibdur”. “Nuh ibni Malik ibni Matushlax ibni Idris payg‘ambari mursaldur va Najiyulloh aning laqabidur. Ba’zi qirq yoshtin so‘ngra, ba’zi ellik yoshtin so‘ngra debdurlarki, anga vahiy nozil bo‘ldi”.*

Alloh taolo Payg‘ambarlariga bevosita va bilvosita V. yuborgan. Bilvosita V. farishtalar orqali, asosan, Jabroil (a.s.) vositasida amalga oshgan bo‘lsa, bevosita V. payg‘ambarlarning solih tushlari orqali namoyon bo‘lgan. Mas., hazrat Ibrohim (a.s.)ning o‘g‘li Ismoil (a.s.)ni qurbonlik qilish haqidagi tushi. Bu ham V.ga kiradi. N. ham “T.A.H.”da bu haqda aytib o‘tgan:” Va mursal (payg‘ambar) uldurkim, anga vahy Jabroil vositasi bila kelmish bo‘lg‘ay. Va g‘ayri mursal (payg‘ambar) ulkim, ilhom yo tush bila elga rahnamoyliq qilg‘ay”.

Solih tushlarni faqat payg‘ambarlar emas, mo‘minlar ham ko‘radi. Ammo ular ko‘rgan tushlar vahiy hisoblanmaydi. V.ning yana bir turi hech bir vositasiz uyg‘oqlikda ilohiy parda ortidan gapirilgan Allohga xos kalomdir. Bu hol Muso (a.s.) va hazrat Payg‘ambarimiz (s.a.v.) hayotlarida kuzatilgani sahih rivoyatlarda kelgan.

V. Muhammad (s.a.v.)ga farishta Jabroil (a.s.) orqali nozil bo‘lgani Qur’oni Karimning bir qator oyatlarida ta’kidlangan. Hazrat Payg‘ambarimizning ayollari Oysha (r.a.)ning rivoyat qilishlaricha, V. Muhammad (s.a.v.)ga turli tarzda tushgan. Jumladan, tush orqali, farishtaning o‘zi ko‘rinmay turib, Muhammad (s.a.v.) qalblariga kerakli xabarni yetkazgan yoki farishta Jabroil (a.s.) odam qiyofasida yoki o‘zining asl qiyofasida V. yetkazgan va h.k. V.ni qabul qilish jarayoni ham turlicha kechgan. Bu haqda ishonchli hadislar vorid bo‘lgan.

“Vahyi munzal” deganda Qur’oni Karim tushuniladi. Ayrim tafsir olimlari Qur’oni Karimning “Kahf” surasi 86-oyatdagi “Zulqarnayn”ga qilingan xitobni yoki “Nahl” surasi 68-oyatdagi asalariga qilingan vahiyni V. ma’nosida emas, balki “ilhom”, “ogohlantirish”, “xabardor qilish”, “amr qilish” kabi ma’nolarda qo‘llanganini ta’kidlashgan. N. “vahyi osor” so‘zini “vahiydek”, “vahiydek muhim”, “vahiy yanglig‘ aziz” kabi ma’nolarda qo‘llaydi. U “N.M.” asarida Xoja Ahrorning unga yozgan maktublarini tabarruk bilib yozadiki: “...bu haqir bila iltifotlari ko‘p bor uchun vahyi osor ruq’alari bila musharraf qilib, ishlarga ma’mur qilurlar erdi. Ul ruq’alarni muraqqa’ yasab, mujallad qilib, jadval va takallufot bila tabarruk yo‘suni bila asrabmen. Umidim ulki, alarning barakotidin bu ishning zavqi va talabi nasib bo‘lg‘ay. Alarning yoshi to‘qsondin olti oy o‘ksuk erdi. Sakkiz yuz to‘qson to‘rtda dunyodin o‘ttilar”.

N. baytlaridan birida: “vahiy (ilhom) bo‘ldimi yoki yordan xabar yetdimiki, g‘amgin xotirim orom olib, g‘amim taskin topdi?” deydi.

Vahyi nozil bo‘ldi yoxud yorning payg‘omidur,
Kim g‘amim taskini g‘amgin xotirim oromidur.

Quyidagi baytda dayr piri – mayxona boshlig‘i, ya’ni xonaqoh shayxining tong yorishgan paytdagi so‘zlari qudsiy(pok) ruhga o‘xshatilsa, quyosh chiqqan paytdagi nafasi esa o‘liklarni tiriltiruvchi vahiyga qiyoslanadi.

Ruhi qudsiy erdi alfozi zuhur etkuncha fajr,
Vahyi “yuhyi” erdi anfosi tulu’ etkuncha yuh.

Yuqoridagi baytda murshiddan maqsad – Muhammad (s.a.v.), uning nafasidan esa Jabroil (a.s) va o‘liklarni tiriltirishga ishora qiladigan oyat ham nazarda tutilgan.

Demak, matnlar qatida kelgan V.so‘zini aslicha idrok etsak, N.ning diniy-irfoniy qarashlaridan to‘g‘ri xulosa chiqaramiz.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011;*

Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Ислом энциклопедияси. – Т., 2017; Абдулқодир Абдур Раҳим. Эътиқод дурдоналари. (Бадъул амолий шарҳи). – Т., 2016.

S.R.

“ВЕЛИКИЙ УЗБЕКСКИЙ ПОЭТ” – N. Tug‘ilgan kunining besh yuz yilligi nishonlanishi munosabati bilan rus tilida nashr etilgan to‘plam. Majmua N. zamonasidagi siyosiy-iqtisodiy, madaniy muhit hamda shoir dunyoqarashining asosiy nuqtalari haqida bahs yurituvchi oltita katta maqoladan tarkib topgan.

Y.G‘ulomovning “Navoiy davrini o‘rganishga doir” nomli Temuriylar davridagi Xuroson va Movarounnahrning siyosiy va iqtisodiy xarakteristikasiga bag‘ishlangan maqolada Temurning markazlashgan imperiyani yuzaga keltirish yo‘lidagi harbiy kurashlari va taktikasi (sarbadorlar hamda Oltin O‘rda xonlari bilan munosabati) haqida fikr yuritiladi. Bartoldning shu boradagi fikrlari tanqid qilinadi. Temuriy hukmdorlar davridagi siyosiy va iqtisodiy vaziyat (xususan, yerga egalikning xarakteri, soliqlar tizimi) ancha batafsil izohlanadi. Shuningdek, muallif Samarqand va Hirotning XV asrdagi ma’muriy va madaniy hayotini ham maxsus ta’kidlab o‘tadi. Lekin maqolada darveshlik va naqshbandiylikni bir xil hodisa sifatida baholab, mazkur mazhablar vakillarini madaniyatning asosiy dushmanlari sifatida xarakterlaydiki, bu fikr naqshbandiylik oqimiga nisbatan to‘g‘ri emas.

Y.G‘ulomov qalamiga mansub ikkinchi maqola “XV asr O‘rta Osiyo shaharlaridagi arxitektura ansambllari traditsiyalari masalasiga doir” deb ataladi. Avtor Maleho Samarqandiyning “Muzakkir ul-as’hob” (1691–92) tazkirasida keltirgan ma’lumot asosida (bu ma’lumot birinchi marta Y.G‘ulomov tomonidan istifoda etilgan) Go‘ri Amir obidasi atrofidagi arxitektura ansamblining XV asrdagi mavjud an’analar b-n aloqasi, Temur va uning nabirasi Muhammad Sultonning dafn etilishi tarixi haqida sharqshunoslik fanida bayon qilingan fikrlar chalkash ekanligini ko‘rsatib, masalalarga aniqlik kiritadi. Shu asosda Shahrisabzda N. tomonidan Hirotda barpo etilgan arxitektura ansambllarining xususiyatini ham izohlaydi.

R.N.Nabiyev qalamiga mansub “XV asrdagi Movarounnahrning siyosiy-iqtisodiy hayoti tarixidan (Xo‘ja Ahror haqida qaydlar)” nomli maqola Temuriy hukmdorlar (Ulug‘bek, Abu Said) davridagi iqtisodiy, madaniy hayot xarakteristikasi b-n boshlanib, asosiy e’tibor Xo‘ja Ahrorning shu davrdagi siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy hayotidagi rolini ko‘rsatishga qaratilgan. Muallif Xoja Ahror bilan N.ning tarixdagi rolini qiyoslaydi va Xoja Ahror tarixda butunlay reaksion rol o‘ynagan, degan xulosaga keladi.

V.Y.Zohidov maqolasi “Navoiyning ba’zi ijtimoiy siyosiy qarashlari” deb ataladi. Muallif “Navoiyning ijtimoiy-siyosiy masalalarga yondashuvida yo‘naltiruvchi nuqta nima” degan savolni qo‘yib, shunga javob berishga harakat qilgan. Bu tayanch nuqta-inson, aniqrog‘i, N.ning insonga munosabati. Maqolada N. Inson konsepsiyasining ba’zi (insonning hayotdagi mavqeyi, inson va ijtimoiy muhit, inson tabaqalari – yaxshi va yomon, shaxs va omma munosabati va nihoyat, N.ning urushlarga munosabati) qirralari borasida fikr yuritilgan.

“Alisher Navoiyning g‘oyalar olami” (Oybek va A.Deych) ikki katta qismdan iborat. Birinchi qism (83-104) N. dunyoqarashining eng muhim qirralari – ideal muhabbat, ideal qahramonning va shoir shaxsi, ayollarga munosabat singari masalalar tahliliga bag‘ishlangan. “Хамса” как художественное целое” deb atalmish ikkinchi qismda so‘z “X.” dostonlari mohiyatini tashkil etgan asosiy g‘oyaviy-estetik konsepsiya haqida boradi.

Maqolada boy an’analar zaminida ijod qilgan buyuk adibga xos novatorlik uning obrazlar tizimi va badiiy tasvir prinsiplari tahlili asosida ochib berilgan. Maqola shunday xulosalanadi: “Navoiy gumanizmi, shoirning barcha xalqlarga nisbatan yuksak ehtiromi, uning inson shaxsining erkinli-

gi va adolat haqidagi g‘oyalari – ana shularning barchasi N. ijodiyotini o‘z milliy va zamonasi madaniyati doirasida eng yuqori cho‘qqiga ko‘taradi. N.ni barcha zamonlar va xalqlarning buyuk milliy adiblari bilan bir qatorga qo‘yish mumkin. N. – o‘zbek xalqining jahonshumul shuhratga sazovor bo‘lgan birinchi shoiri”.

M.Y.Massonning “XV asrdagi Hirotning tarixiy topografiyasiga doir” maqolasi A.M.Belenitskiyning 1946-y.da “Alisher Navoiy” to‘plamida nashr etilgan Hirotning tarixiy topografiyasi haqidagi maqolasi munosabati b-n unga taqriz-javob tarzida yozilgan. Binobarin, mazkur maqola tahlil qilinib, uning yutuq va nuqsonlari batafsil ko‘rsatilgan. Hirot tarixi va N. davri topografiyasi b-n aloqador bir qator masalalarga tarixiy manbalardagi ma’lumotlar asosida aniqlik kiritilgan. Shuningdek, muallif mazkur maqolaning dastlabki maxsus tadqiqot sifatidagi rolini obyektiv baholaydi.

Ad.: *Ғуломов Я. Хива шаҳрининг ёдгорликлари. – T., 1941.*

E.O., S.O‘., Sh.R.

VELYAMINOV–ZERNOV Vladimir Vladimirovich – (1830–1904) rus sharqshunosi, filolog, arxeolog, tangashunos, tarixchi olim. Aleksandr litseyida o‘qiydi (1850), arab, fors tillarini o‘zlashtiradi. Uning Sharq tillarini o‘rganishida amakisi N.V.Xanikovning ta’siri katta bo‘lganini e’tirof etadi. Tashqi ishlar vazirligi Osiyo bo‘limida ishlaydi. Uning qozoq, qirg‘iz xalqi, xususan, Muhammad Alidan Xudoyorxongacha bo‘lgan Qo‘qon xonligi haqidagi ko‘plab ilmiy nashrlari e’lon qilingan. N. to‘g‘risida “Qosimov podsholari va shahzodalari haqida tadqiqotlar” (1866) kitobining uchinchi qismida ma’lumot beradi. Kitobdagi ma’lumotlar orasida ayrim so‘zlar izohlab boriladi. Jumladan, *mo‘ldur* (muldur’) – so‘zi izohlanganda N.ning “S.S.” dostonidan olingan *“Tishlari la’l ichinda rishtayi dur, Yoki hayvon suyi aro mo‘ldur”* misralari eski o‘zbek yozuvida keltiriladi (310-312). Yana “L.M.”da bahor ta’rifida, “Sab’ai sayyor”da Dilorom ta’rifida ushbu so‘z qo‘llanganini baytning ruscha tarjimasi orqali ko‘rsatib o‘tadi. Rus tatarlarida bu so‘z *mo‘lduramak – “Ko‘zindan yoshlari mo‘ldurab og‘ar – слёзы у него копаютъ из глаз”* tarzida qo‘llanishini aytadi. Izohda chig‘atoy tili lug‘ati, I.Berezinning “Sankt-Peterburg kutubxonasidagi turk-tatar qo‘lyozmalari tavsifi” (1847), M.Nikitskiyning N. haqidagi magistrlik dissertatsiyalari (1856) manba sifatida ko‘rsatilgan. Har ikki dostondan parchani N.ning mashhur beshligi – “X.” qo‘lyozmasidan olganini aytadi. Olim qadimgi turkiy tilni yaxshi bilgan. “Abushqa” nomi b-n tanilgan N. lug‘atini “al-Lug‘at an-navoiyya va-l-istishhodot al-chig‘otoiyya” (Chig‘atoy-turk lug‘ati,1868) nomi b-n nashr qilgan. V.Z.V.V. kitobni nomlashda nashrga jalb qilingan bir qo‘lyozma kotibi uni shu nom b-n ataganini asos qilib oladi. Lug‘at muallifi N.ning 19 ta asaridan foydalangani, V.Z.V.V. esa 13 ta asaridan foydalanish imkoni borligi, 6 ta asari juda kam qo‘llangani u-n ishni olib borishda qiyinchilik tug‘dirmagani, 1860-y.gacha N. asarlarining atigi 2 tasi nashr etilib, qolganlari esa qo‘lyozma holida bo‘lgani aytiladi. Umuman, olimning o‘zbek ilm-fani oldidagi xizmatlari katta, uning N. asarlari lug‘atini nashrga tayyorlashi o‘z davridagi katta vazifa edi.

Ad.: *Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Вельяминов-Зернов В.В. Изследованіе о касимовскихъ царяхъ и царевичахъ. Императорской Академии наук. СПб, 1864-1887. 1866. Т. III; Словарь джагатайско-турецкий (Абушка). Издал Вельяминов-Зернов В.В. – Санкт-Петербург, 1868.; Умаров Э.А., В.В.Вельяминов-Зернов – издатель словаря “Абушка” // Советская тюркология. – 1985.*

O.T.

VISOL – Q.: Vasl.

“VIQOR GAVHARI-YU...” – N.ning “G‘.S” devonidan o‘rin olgan qit’asi:

Viqor gavhari-yu hilm ma’dani bo‘lako‘r,
Desangki, qilg‘ay itoat sanga gado bila shoh.
Bu sheva tog‘da zohirdururki, davrondin
Qachonki tafriqa yetti, ulusqa bo‘ldi panoh.

Haqiqiy san’atkor – insonni insonlik sharafi va martabasiga yuksaltiradigan takrorlanmas fazilat, eng nodir xislatlarning tolmas targ‘ibotchisi hamda muhofizi hisoblanadi. N.ning ijodiyoti alohida e’tibor va ahamiyatga molikdir. Ushbu qit’ada ikki fazilat – viqor va hilm ulug‘langan.

Viqor – vazminlik, ulug‘vorlik, salobat mazmunidagi viqr so‘zidan paydo bo‘lgan. Bu kalima yoshlikdagi g‘ayrat, harakatchanlik b-n keksalikdagi sokinlik, teranlikning o‘zaro birlashuvini aks ettirgan. Demak, viqorning bir qanoti yoshlikka tegishli bo‘lsa, ikkinchisi qarilikka daxldor.

Naql qilinishicha, bir keksa kishining ahvolini ko‘rib Ibrohim payg‘ambar, “Ey rabbim, bu nedur?” deb so‘rabdi. Allohdan “Viqordur”, degan javob kelibdi. Shunda hazrati Ibrohim (a.s.) “Allohim, mening viqorimni orttir”, deya iltijo qilgan ekan. Viqor – oriflik sifati. Shuning u-n ham she’rda viqor gavharga, gavhar esa viqorga teng va muvofiq ko‘rilgan.

O‘z qadr – qimmatini anglash, g‘urur sohibi bo‘lish, tama’, xushomad, tilyog‘lamalik singari chirkinliklardan tozalanish – bularning bariga viqor bir qalqon deyish mumkin. Chinakam viqor kekkayish, manmanlik, kibr-u havoga qullik kabi hirslarni so‘ldirib, so‘ndirib tashlaydi. Qit’a:

Viqor gavhari-yu hilm ma’dani bo‘lako‘r, –

degan bir da’vat b-n boshlanishi bejiz emas. Chunki viqorning ziynati va jozibasi hilm, ya’ni yumshoqlik, tamkin hamda xoksorlikda.

N.ning ta’riflariga ko‘ra esa, “Hilm (muloyim tabiatlilik) inson vujudining xushmanzara mevalik bog‘idir va odamiylik olamining javohirga boy tog‘idir... Hilm axloqli odamning qimmatbaho libosi va u kiyim turlarining eng chidamli matosidir. U – yomon nafsni daydi shamol o‘chirishidan asraguvchi va ikkiyuzlama munofiqlarning behuda harakatidan himoya qiluvchidir”.

“Hilm ma’dani” bo‘lish – til va dil yumshoqligi, shafqat va mehribonlik odobini egallash oson ish emas. Hilm – so‘z va muomala madaniyati, bag‘rikenglik va dil pokligini talab etadi. Olimlar hilmni uch turga bo‘lishgan. Biri hilmi zolimon deyiladi. Zolimlar hilmi – ko‘ngildagi kin-u adovatlarni haydash demak. U kechirimli bo‘lmoq va afv etishni shart qilib qo‘yadi. Shunda odam yomonlik qilganga ham neklik eta oladi va bundan huzur ham topadi.

Qadim Eron podshohi No‘shiravoni odil hilmga xiyonat hilmaslik u-n uchta xat yozibdiyu, quliga berib debdi: “Men achchig‘lansam, shu uch xatdagi gaplarni galma-gal o‘qib bergin”. Kunlardan birida unda qahr-g‘azab qo‘zg‘alibdi. Qul birinchi xatni ochib o‘qibdi. Unda: “Jahlingni quv, Tangri senga yaxshilik qilgay!” – degan so‘zlar bitilgan ekan. Ikkinchisida: “Rahm qil, rahm ko‘rgaysan”, uchinchisida: “Tangri qullarini Tangriga topshir, u rostlikka bo‘yin egdirgay”, – deyilgan ekan. Bu rivoyatdan ikkita xulosa chiqarish mumkin. Birinchisi, eng odil banda ham hilm u-n qayg‘urishi kerak. Ikkinchisi, hilm tufayligina beg‘araz izzat-hurmatga erishiladi. Va ana shunda shoh-u gado ishonchga muyassar bo‘lish mumkindir. N. o‘ylagan, orzu qilgan ma’noda viqor va hilmni o‘zida mujassamlashtirgan shaxsni topish qiyin, albatta. Balki shu boisdan ham shoir qiyin va ziddiyatli vaziyatda xalqqa pushti panoh bo‘lishning daxlsiz namunasi tog‘da namoyondir, deydi:

Bu sheva tog‘da zohirdururki, davrondin,
Qachonki tafriqa yetti ulusqa bo‘ldi panoh.

Darhaqiqat, qaysi elat yoki millat tog‘ qadar viqorli, hayot zarbalariga qaddi bukilmaydigan shijoatli farzandlarni voyaga yetkazmas ekan,

hech qachon u mayda tushuncha va o‘tkinchi tashvishlar girdobidan chetlasholmaydi. Bu o‘rinda tog‘ timsoli keng fikrlashga chorlaydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011.*

I.H.

VODIYI AYMAN – Q.: Ayman vodiysi.

VODIYI HAMIM – “S.S.” dostonida tasvirlangan vodiy. Dostonda oltinchi iqlim yo‘lidan keltirilgan musofir hikoyasining qahramonlari Boxtar viloyatidan Hovar mamlakatiga qilgan safari chog‘ida ana shu vodiydan o‘tadilar. Bu bepoyon suvsiz dasht bo‘lib, unda doimo issiq shamol esib turar edi. Bu yerda jonivorlar mutlaqo yo‘q, tikan-u sho‘radan boshqa giyoh ham o‘smagan. Bu vodiyning qandayligini bilgan kishilar bu yo‘ldan yurmas edilar. Lekin Muqbil va Mudbir ushbu vodiy haqida tasavvurlari yo‘qligi sababli bu yo‘lga kirib qoladilar:

Ul ikov yo‘ldin bo‘lmayin ogoh,
Bo‘yla vodiyda bo‘ldilar hamroh.

Vodiyning dostondagi tasviri chindan ham u yerning inson bolasi chiday olmaydigan ma’vo ekanidan dalolat beradi. Hatto bu vodiyning suvi va tuprog‘i ham o‘zgacha. N. V.H.ning suvini naft (neft)ga, tuprog‘ini gugurtga qiyos qiladi:

Tikan-u sho‘ra – sabza-yu bog‘i,
Naft-u go‘gird – suvi tuprog‘i.

Bu yerning “V.H” deb atalishining sababi o‘ta issiqligi edi:

Debon el “Vodiyi Hamim” otin,
Hirqati aylab oning isbotin.

V.H.ni bosib o‘tishda hikoya qahramonlari ko‘p qiyinchiliklarga duch keladilar va bunda ularning har biri o‘zini har xil tutadi. Mudbir o‘zining besabrligini, irodasizligini namoyish etadi. U doimiy ravishda noliydi va hatto Tengriga ham e’tiroz bildirib, “nahot bu yerda suv yaratish Unga qiyin bo‘lsa” deydi:

Chun harorat sharora ko‘rguzdi,
Mudbiri xas sharoratin tuzdi.

Chun der erdi mast-u behushvor:
“Suv yaratmoq magar erur dushvor”.

Yo‘q edi mayl qilsa har so‘zga,
Tengriga e’tirozdin o‘zga.

U sherigiga ham ta’na qiladi va “sen tufayli shu yomon ahvolga tushdim”, deya uni ayblaydi:

Chunki ul poyadin tanazzul etib,
Ta’n-u tashniyi hamrahig‘a yetib.

Kim: “Men notavoni xastag‘a kosh,
Sen kibi bo‘lmag‘ay edi yo‘ldosh!

Seni ko‘rmak ne shum kun erdi
Ki, yomon muncha xosiyat berdi”.

Ko‘rinadiki, V.H. bog‘liq epizod asarda o‘ziga xos badiiy funksiyani bajaradi. Bir tomondan u qahramonlar u-n sinov bo‘lsa, ikkinchi tomondan ularning xarakter xususiyatlarini ochib beradi. Mudbirdan farqli o‘laroq Muqbil qiyinchiliklardan nolimaydi, bu o‘rinda undagi ichki iymon-iroda namoyon bo‘ladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011.*

Q.E.

VOLA (taxallusi; asl ismi Eshonxo‘ja Mirinoyatulloxo‘ja o‘g‘li) (1770–1842, Ishtixon) – shoir. U tug‘ma basir bo‘lsa-da, zukkoligi, xotirasining kuchliligi, favqulodda qobiliyati b-n ajralib turgan. Yoqimli ovoz sohibi ham bo‘lgan. Otasi qozi bo‘lib, uning yordamida tahsil olgan.

Turkiy va forsiyda qalam tebratgan. Shavqiy, Nodim, Xiromiy kabi Kattaqo‘rg‘on adabiy muhiti namoyandalari b-n ijodiy muloqotda bo‘lgan. O‘zbek tilidagi ijodida N.ga, forsiy ijodida Hofizga ergashib, ularning ko‘plab g‘azallariga tatabbu’ qilgan, muxammaslar bog‘lagan. O‘z zamondoshlari tomonidan “she’rlari ravon va xalqqa manzur” deb ta’riflangan, mumtoz g‘azalchilik an’analarini a’lo darajada egallagan V. zullisonayn shoir sifatida har ikki tildagi she’rlaridan 2 ta devon tuzgani, bayozlar tartib bergani aytilsa-da, bizgacha turli bayozlar orqali 3 ming misradan ziyod she’rlari yetib kelgan. Bu she’rlar ishqiy, ijtimoiy va pand-nasihat mavzusida yozilgan.

V. Buxoro amirligini larzaga solgan 1821–1826-yy.dagi qipchoqlar qo‘zg‘oloniga xayrixoh bo‘lgan. Amir tomonidan tazyiqqa uchragan. Qashshoqlik va muhtojlikda yashagan.

N.ning “Turra marg‘ulin ochib, ruxsori mahsiymoga soch”, “Na xam qoshlardururkim, hasrati qaddimni yo qilmish”, “Ishq ahli go‘ristonida qabrim chu zohir bo‘lg‘usi” misralari b-n boshlanadigan g‘azallariga muxammaslar bog‘lagan. M-n:

Na o‘tlug‘ oraz erkan,
shu’lasi jismimg‘a jo qilmish,
Na hijron tig‘i erkan,
band-bandimdin judo qilmish,
Na kofir ko‘zlar erkan,
din-u iymondin judo qilmish,
Na xam qoshlardururkim,
hasrati qaddimni yo qilmish,
Na kipriklar o‘qikim, ro‘zgorimni qaro qilmish.

Muxammaslarida taxmis bog‘lanayotgan g‘azal vazni, qofiyasi, radifini saqlabgina qolmay, ularda mahorat b-n qo‘llangan badiiy san’atlarni ham to‘ldirish va boyitishga harakat qilishi V. muxammasnavislikda katta tajriba to‘plab, yuksak malakaga ega bo‘lganidan dalolat beradi. Keltirilgan misol ham uning takror, tashbeh va mubolag‘a san’atlarini qo‘llashda buyuk salafi b-n ijodiy bellashgani va muvaffaqiyatga erishganini ko‘rsatadi.

Adabiy ta’sirni ikki shoir ijodidagi faqat shakliy o‘xshashliklardan emas, balki mazmun, uslub, tasvir usuli, ifoda tarzi, hatto ohangdan ham izlash kerak. Ayni jihatdan V.ning “Quyosh qorong‘ilik ichra pinhon bo‘lgani kabi go‘zal mahbuba ham yuzini qop-qora mushkin sochlari ichra yashirmish” mazmunidagi:

Yoshurmish orazin ul oy niqobi mushkfom ichra,
Nihon o‘lg‘an kibi ko‘zdin quyosh
ruxsori shom ichra,

misralari tasvir tarziga ko‘ra N.ning “Xuddi quyosh botib ketganidan keyin osmonga yulduzlar chiqib kelganiday yor yuzini yashirganida mening ko‘zimdan ham yoshlar sochiladi” mazmunidagi go‘zal va betakror:

Orazin yopqoch
ko‘zimdin sochilur har lahza yosh,
Bo‘ylakim, paydo bo‘lur yulduz,
nihon bo‘lg‘och quyosh

baytini esga soladi.

Ad.: *Вола. Ғазаллар. Мухаммаслар // Асрлар нидоси. – Т., 1982; Абдуллаев В. Танланган асарлар. 2 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2002; Вола // ЎзМЭ, 2-жилд. – Т., 2001.*

E.O.

VOLIN Semyon Lvovich (1909–1943, Germaniya) – sharqshunos olim. Peterburg universitetining Sharq fakultetida arab va turkologiya bo‘limlarini tugatgan. 1937–1941-yy.da Sharqshunoslik institutida ishlagan. “Turkman va Turkmaniston tarixiga oid materiallar”ning 1-jildini tayyorlashda faol ishtirok qilgan. V.S.L. bu nashr u-n arab tilidagi manbalardan ko‘plab parchalarni tarjima qilib bergan. U Oltin O‘rda tarixi, Qadimgi Xorazm tarixi va Xorazm tili, Markaziy Osiyoda yashagan arablar tarixi va hayotiga taalluqli ilmiy ishlar muallifi. V.S.L 1940-yy.da qatag‘on qilingan va hibsda vafot etgan. Shu sababli V.S.L.

ning bir qator maqolalari uning vafotidan so‘ng, oqlanganidan keyin e’lon qilingan. V.S.L. Ulug‘ Vatan urushidan avval tayyorlana boshlagan va 1941-y.da o‘tkaziladigan N.ning 500 yilligiga bosilishi ko‘zda tutilgan, lekin 1946-y.da nashr etilgan “Alisher Navoiy” to‘plami (q.) u-n maxsus Sankt-Peterburg fondlarida saqlanayotgan N. qo‘lyozmalarining tavsifiga bag‘ishlangan maqola tayyorlaydi. V.S.L.ning bu maqolasi ham uning vafotidan so‘ng nashr etildi. V.S.L. unda M.Y. Saltikov-Shedrin nomidagi Ommaviy kutubxona, Sankt-Peterburg davlat universiteti Sharq qo‘lyozmalari bo‘limida saqlanayotgan, ulardan ko‘pchiligi XV–XVI asrlarda ko‘chirilgan shoirning barcha asarlari qamrab olingan N.ning 124 qo‘lyozmasi tavsif etiladi. V V.S.L. har bir qo‘lyozma haqida so‘z yuritar ekan, Belen, Bloshe, Flyugel, Ryo, Semenov va boshqa kataloglaridagi ma’lumotlarni ham berib o‘tadi.

Ad.: *Кононов Н. Тюркология в Ленинграде. – М., 1972.*

S.G‘., Sh.R.

VOLIS – qadimgi yunon donishmandi Fales. Kichik Osiyoning Milet shahrida yashagan. Tug‘ilgan va o‘lgan yillari aniq emas. Ayrim ma’lumotlarda uning eramizgacha bo‘lgan 624–547-yy.da yashab, ijod qilgani aytilsa, boshqa bir ma’lumotda uning tug‘ilgan yili eramizgacha bo‘lgan 637, o‘lgan yili 558 deb qayd qilingan. Uchinchi taxminga ko‘ra Fales eramizgacha bo‘lgan VII asrning oxiri – VI asrning birinchi yarmida yashagan. Fales yunon falsafa maktabining asoschisi hisoblanadi. Ushbu maktab tarixga Milet maktabi nomi b-n kirgan. Unga mansub olimlar faqat falsafa b-n cheklanmay, tabiiy fanlar b-n ham shug‘ullanganlar, xususan, astronomiya, matematika, fizika, geografiya, shuningdek, kosmogoniyaga katta e’tibor berilgan. Yevropa fanining yuzaga kelishi Milet maktabi bilan bog‘liq deb hisoblanadi.

N.ning “S.I.” dostonida Fales V. deb tilga olingan. N. Iskandar Kashmirga yurish qilganda Kashmir hukmdori Mallu afsungarlar va sehr-joduni unga qarshi qo‘yadi. Iskandar esa o‘z hakimlariga murojaat qiladi. Ular huzurida besh yuzta hakim bo‘lgani haqida yozadi va ulardan o‘ntasining nomini keltiradi. Ular orasida V. ham bor:

Qilinmun-u Volis-u Farfurnus,
Ki, Suqrot-u Hurmus kibi xokbo‘s.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Асмус В.Ф. Античная философия. – Москва, 1998; Басни Эзопа. – Москва, 1968.*

A.A.

VORID (VORIDOT) – solikning ixtiyoriga bog‘liq bo‘lmagan ravishda qalbda yuzaga keladigan ma’no, ilhom va fayz. V. lug‘atda “eshik qoquvchi”, “keluvchi” ma’nolarini anglatadi. Ibn Atoulloh Sakandariy hikmatlariga sharh yozgan Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlari V. qalbni oldingi holidan qo‘zg‘atishi, rabboniy ma’rifatlarga sabab bo‘lishi, gohida dahshatga solishi, hushidan ketkazishi ham mumkinligini ta’kidlab, shunday deydi: “Vorid, ya’ni ilohiy turtki ta’limsiz, o‘qish, yozish, eshitish yoki boshqa vositalarsiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri qalbga joylashib, ta’sir qiluvchi kuchga aylanadi. ...O‘tgan davrda ham, hozir ham sayri sulukda bo‘lib turganlardan anchalari aynan ushbu voridlar fitnasiga uchrab, aynib ketganlari va aynib ketayotganlari ming afsuslar b-n qayd etilayotgan haqiqatlardan biridir. Xuddi shu hollarni yashagan shayxlar hayotidan xabar beruvchi “N.M.”da Shayx Najmidin Kubro hayoti haqidagi eng ta’sirli o‘rinlar, solikning sayri sulukdagi turli hollarini ko‘rsatuvchi voqealar tanlangan. Jumladan, “Bobo Farajni ko‘rdumki, kirdi va dedi: Tunokun manzili “ilm ul-yaqin”din o‘ttung. Bu kun yana ilm boshig‘a borursen. Men dars tarkin tuttim va riyozat va xilvatqa mashg‘ul bo‘ldum. Ulumi laduniy va voridoti g‘aybiy ko‘rina boshladi. Dedim: hayf bo‘lg‘ayki, ul favt bo‘lg‘ay! Oni bitir erdim. Boboni ko‘rdumki, kirdi va dedi: shayton senga vasvasa beradur. Bu

so‘zlarni bitima! Davot va qalamni tashladim va ko‘ngul barchadin jam’ qilib, qulluq boshladim”, – deyiladi asarda. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, muridning tariqat hayotidagi eng tahlikali davri unga vorid, ilhom in’om etiladigan lahzalardir. Bu paytda solikni aldamchi hislar, o‘ziga bo‘lgan asossiz ishonch va kibr-u havo vasvasaga solishi mumkin. Bunday hollarda murid yo‘ldan adashadi yoxud eng yaxshi holat o‘sha bekatda turib qolib, maqomidan ko‘tarila olmaydi. Bu vaziyatda murshid chinakam yo‘l qorovuliga aylanadi va shariati islom doirasida to‘g‘ri qarorlarga kelib, muridga yangi-yangi vazifalar beradi. Murid ham qalbiga inadigan har bir voriddan murshidini ogoh etadi. Go‘yoki bu hollarni murshidi bilan birga yashaydi. Tasavvuf ahliga ko‘ra, ma’naviy yo‘lchilikda vorid muhim ahamiyatga ega. Shu bois “N.M.”da Abulhusayn Sirvoniyi Sag‘ir (q.s.)ning: “So‘filar avrod bilan emas, voridot bilandir” gapi keltiriladi. Shayx San’on ta’rifida ham uning qalbiga vorid inishiga urg‘u beriladi:

Shayx San’on vosili dargoh edi,
Ko‘ngli g‘ayb asroridin ogoh edi.
...Voridoti arshdin payg‘omdek,
Voqeyoti vahiy ila ilhomdek.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Хислатли ҳикматлар шарҳи. Бешинчи жуз. – Т., 2015.*

I.H.

VOSIFIY ZAYNUDDIN MAHMUD IBN ABDULJAMIL (1485, Hirot – 1556, Toshkent) – fors-tojik shoiri, adibi va tarixchisi.

V.Z.M.A. 12-13 yoshlaridan badiiy ijodga kirishgan. Madrasada o‘qigan yillari V.Z.M.A. qasida va g‘azallar yozgan. U nazm va nasrning qator turlarini yaxshi egallagan, xususan, qasida, insho va muammo san’atida katta mahoratga ega bo‘lgan. Shuningdek, V.Z.M.A. kotiblikda ham nom chiqargan. Ular orasida Samarqandda ro‘y bergan qahatchilikka bag‘ishlangan qasidasi (1512) va anvoyi gullar nomini radif qilib yozgan lirik she’rlari el og‘ziga tushadi. V.Z.M.A.ga haqiqiy shuhrat keltirgan asari “Badoye’ ul-vaqoye’” bo‘lib, (1517–33-yy yozilgan) bo‘lib, undan muallifning esdaliklari va turli hikoyalari o‘rin olgan. S.Ayniy va N.Boldirevlar fikricha, V.Z.M.A. asarining tili xalq tiliga g‘oyat yaqin, xalqona iboralar ko‘plab istifoda etilgan. Asarda saroy xizmati tufayli hukmron doiralarga qaratilgan mubolag‘ali tasvir va madhiyalar ham mavjud. V.Z.M.A. asarida Hirot madaniy muhiti, taniqli namoyandalari, xususan, N. va uning adabiy davrasi haqidagi lavhalar g‘oyat maroqlidir.

“Badoye’ ul-vaqoye’”da keltirilgan N. b-n bog‘liq hikoya va lavhalar N.Boldirevning “Alisher Navoiy” (1946, Leningrad) to‘plamiga kirgan “Navoiy zamondoshlari hikoyasida” nomli maqolada tahlil qilingan. Asarning 20 ta qo‘lyozma asosidagi ilmiy-tanqidiy matni N.Boldirev tomonidan tuzilgan, so‘zboshi, izoh va ko‘rsatkichlar b-n Sankt-Peterburg hamda Tehronda nashr etilgan.

N.Boldirev V.Z.M.A. haqida monografiya yaratdi va “Badoye’ ul-vaqoye’”ning ilmiy-tanqidiy matni ham tadqiqoti” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi (1959). “Badoye’ ul-vaqoye’” o‘zbek tiliga Naim Norqulov tomonidan qisqartirib tarjima qilinib, nashr etilgan (– T., 1979).

“Badoye’ ul-vaqoye’”da N. b-n bog‘liq lavhalar anchagina ekani bejiz emas. Bu xalq orasida ulug‘ shoir shaxsiyati va faoliyatiga qiziqish kuchli bo‘lganidan dalolat beradi.

Ad.: *Восифий. Бадоеъ ул-вақоеъ. Илмий-танқидий матн. М.-Л., 1951; С.Айний. Восифий. А.Болдирев. Зайниддин Маҳмуд Восифий. Таджик. писат. XVI в. – Сталинобод, 1957.*

S.G‘.

VOFIR (ar. – mo‘l) – mafoilatun (2-va 5-hijolar cho‘ziq, qolganlari qisqa – V – V V –) as-

lining takroridan hosil bo‘ladigan bahr (mafoilatun mafoilatun mafoilatun mafoilatun – V – V V – / V – V V – / V – V V – / V – V V –). Qisqa unlilar ko‘p bo‘lgani u-n shunday nom berilgan. Bu bahr arab she’riyatiga xos bo‘lib, turkiy va forsiy adabiyotda qo‘llanmagan. Lekin bahrning xususiyatlarini tushuntirish maqsadida N. “M.A.”da uning 2, Bobur esa “Muxtasar” asarida 21 vazniga to‘xtalganlar. “M.A.” N. vofiri musammani solim vazniga

Firoq o‘tidin kuyar badanim,
tafidin erib oqar jigarim,
G‘am bududurki, bog‘lanibon
yuzung sori tushmagay nazarim, –

baytini misol qilib keltiradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Бобур. Мухтасар. – Т., 1971; Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т., 1998; Юсупова Д. Аруз ва муттоз поэтикага кириш. – Т., 2020.*

E.O.

VOHIDOV Rahim (1942–2012, Buxoro) − adabiyotshunos olim, prof. V.R. 1970-y. B.N. Valixo‘jayev ilmiy rahbarligida “Amir Shayxim Suhayliy hayoti va adabiy merosi” mavzusida nomzodlik, 1988-y. “XV asrning II yarmi − XVI asrning boshlarida o‘zbek va fors-tojik adabiy aloqalari (qiyosiy-tipologik yo‘nalish)” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi.

V.R. − respublikamizdagi taniqli n.shunoslardan biri edi. Tadqiqot yo‘nalishi bevosita N. davri va uning zamondoshlari b-n bog‘liq bo‘lganidan u ulug‘ o‘zbek shoiri ijodi b-n ham butun umr shug‘ullanib keldi. Bu boradagi izlanishlarini N. va adabiy ta’sir masalalaridan boshlagan olim dastlab “Muhaqqiqi buzurgi du adabiyot” va “Navoiy ijodi − ilhom manbai” risolalarini o‘quvchilar e’tiboriga havola etdi. Keyin “M.N.” tarjimalarini chuqur tadqiq etdi (“Majolis un-nafois” tarjimonlari”, 1984). Oradan ko‘p o‘tmay u ulug‘ shoir haqida maxsus risola yozdi (“Navoiy barhayot”, 1991). “Alisher Navoiy “Xazoyin ul-maoniy” asarining tojikcha tarjimalari” risolasini e’lon qildi.

Mustaqillik yillarida n.shunoslik uning asosiy tadqiqot sohasiga aylandi: u “Navoiyning ikki durdonasi” (1992), “Alisher Navoiyning ijod maktabi” (Buxoro, 1994), “Alisher Navoiy va ilohiyot” (Buxoro, 1994), “Navoiy qalbi-la sirlashgan inson” (1999), “Navoiyga oshufta ko‘ngil” (2005) singari risola va monografiyalarini yaratdi. Hamisha birlamchi manbalarga tayanish, ularni sinchiklab o‘rganib, teran tahlil qilish va har bir fikrini ishonchli dalillar b-n asoslash − V.R. tadqiqotlarining yetakchi xususiyati hisoblanadi.

V.R. N. ijodiga adabiy aloqalar, ijodiy ta’sir va aks ta’sir, an’anaviy ijodiy o‘zlashtirish va N. an’analarining davomiyligi, ilohiyotga munosabat va tarjimachilik, nihoyat n.shunoslik yo‘nalishlarida keng qamrovda ilmiy mushohada etishga harakat qilib, muhim natijalarga erisha olgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Воҳидов Р. Навоий ижоди − илҳом манбаи. – Т., 1981; “Мажолис ун-нафоис” таржималари”. – Т., 1984; Навоий барҳаёт. – Т., 1991; Навоийнинг икки дурдонаси. – Т., 1992; Алишер Навоийнинг ижод мактаби. − Бухоро, 1994; Алишер Навоий ва илоҳиёт. − Бухоро, 1994; Навоий қалби-ла сирлашган инсон. – Т., 1999; Навоий меросига ошуфта кўнгил. – Т., 2005; Умрим дафтаридан саҳифалар. Бухоро, 2012; Мирзаев – Т., Сафаров О., Ҳаққул И. Раҳим Воҳидов // ЎТА, 2002, №3.*

I.H., E.O.

VOHIDOV Sulton (10.01.1937, Asht tumani – 29.11.1992, Xo‘jand) – adabiyotshunos, f.f. d-ri (1989), prof. (1990). Butun umr Tojikiston Davlat universitetining (Dushanbe) tojik adabiyoti tarixi kafedrasida ilmiy-pedagogik faoliyat b-n shug‘ullangan. 1966-y.da prof. Sh.Husaynzoda rahbarligida “Alisher Navoiyning “Xamsat-

ul-mutahayyirin” asari va uning XV asrda tojik va o‘zbek xalqlari o‘rtasidagi adabiy aloqalarni o‘rganishdagi o‘rni” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. V.S. o‘zbek va tojik xalqlari o‘rtasidagi mustahkam va chuqur ildiz otgan do‘stlik ramzi sifatida ikki buyuk zot N. va Abdurahmon Jomiyning samarali ijodiy hamkorligi, ustoz-shogird munosabatlarini o‘rganishga e’tibor qaratdi. Izlanishlari natijasida ko‘plab tarixiy, adabiy va ilmiy manbalardan olingan ma’lumotlar tadqiq qilishga erishdi. Albatta, N. ning “Xam.M.”i alohida maqomga ega. Uning tadqiqotlariga ko‘ra, N. va Jomiy ilm-fan va madaniyat rivoji, yurt ravnaqi, xalqning farovonligi yo‘lida xizmat qilishgan. Ular nafaqat ijod va adabiyotda, balki siyosat va davlat boshqaruvida ham maslakdosh edilar.

V.S. 1974-y.da tadqiqot materiallarini yig‘ib, “XV asrda tojik va o‘zbek xalqlarining adabiy aloqalari” (N.ning “Xam.M.” asari asosida) Dushanbening “Irfon” nashriyoti orqali tojik tilida 130 betli monografiyasini nashrdan chiqarishga muvaffaq bo‘ldi. Bundan tashqari, V.S. N. va uning zamondoshlari haqida, “Ikki buyuk zotning do‘stligi” /Navoiy va Jomiy/ (1964), “Jomiy va Navoiy” (1966), “XV asrda tojik-o‘zbek adabiy aloqalari haqida” kabi turkum ilmiy maqolalari (1966), “Tojik va o‘zbek xalqlarining madaniy aloqalari haqida” (1966), “Navoiy va Amir Shohi” (1968), “Navoiy ishlarini xotirlash” (1991), “Makorim-ul-moh” yoxud Xondamirning Alisher Navoiy haqidagi ilk risolasi” (1991), “Navoiyning nafis yozishmalari” (1991) nomli ilmiy izlanishlari ham olimning N. ijodiga bo‘lgan cheksiz hurmatini namoyon etadi. Tojik Ensiklopediyasidagi (3-4-7-jildlar) “Navoiy”, “Foniy”, “Majolis un-nafois” maqolalari V.S. qalamiga mansub. Tadqiqotlari doirasida olim mashhur o‘zbek adabiyotshunoslari B.N.Valixo‘jayev, A.H.Hayitmetov, H.Homidov, S.G‘aniyeva b-n ilmiy hamkorlik qilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамсат ул-мутаҳаййирин. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоийнинг “Хамсат ул-мутаҳаййирин” асари XV асрдаги тожик ва ўзбек адабий алоқаларини ўрганишда муҳим манба сифатида // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – Т., 1966. – № 2, 30-34 бет); Фурўғи ҳусни маъний: Аз рўзгор ва осори проф. Воҳидов С. – Душанбе., 2007.*

Bad.M., Sh.R.

VOHIDOV Erkin (1936, Farg‘ona – 2016, Toshkent) – shoir, dramaturg, tarjimon, jamoat arbobi. O‘zbekiston xalq shoiri (1987), O‘zbekiston Qahramoni (1999). ToshDU Filologiya fakultetini tugatgan (1960). V.E. bir qator nashriyotlarda ishlagan. “Yoshlik” jurnali bosh muharriri (1982–83) vazifalarida faoliyat ko‘rsatgan.

“Tong nafasi” (1961), “Qo‘shiqlarim sizga” (1962), “Yurak va aql” (1963), “Mening yulduzim” (1964), “Yoshlik devoni” (1969), “Muhabbat” (1976), “Tirik sayyoralar” (1978), “Sharqiy qirg‘oq” (1982), “Kelajakka maktub” (1983), “Bedorlik” (1985), “Muhabbatnoma”, “Sadoqatnoma” (1986) kabi ko‘plab she’riy to‘plamlari va saylanmalari nashr etilgan. “Orzu chashmasi”, “Nido” (1964), “Palatkada yozilgan doston” (1966), “Quyosh maskani” (1970), “Baxmal” (1974), “Ruhlar isyoni” (1979), “Toshkent sadosi” (1983) dostonlari, “Oltin devor” (1969), “Istanbul fojiasi” (1985) kabi dramalar muallifi. Adabiy merosi 8 jildda nashr etilgan (2000–2018).

N. siymosi V.E. ijodida alohida o‘rin tutadi. Tarjimayi holida yozishicha, V.E.ning N. ijodi b-n o‘zi tarbiya topgan tog‘asi Karim Saxiboyev xonadonidagi adabiy gurunglardan boshlangan. Turli soha vakillari bo‘lgan adabiyot ixlosmandlari bunday suhbatlarda Hofiz, N., Fuzuliy, Bedil she’rlarini o‘qib, tahlil qilganlar. Maktabda o‘qib yurgan davrida o‘quvchilar saroyidagi yosh adabiyotshunoslar to‘garagida Sharq mumtoz shoirlari qatorida N. she’rlarini ham o‘qib beradi. Talaba-

ligida N. ijodi b-n jiddiy shug‘ullanib, “Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni kompozitsiyasi” mavzusida diplom ishi yozgan. Unda dostonning qator nashrlarini qiyosiy o‘rganib, ko‘plab matniy xatolar va g‘alizliklarni ham ko‘rsatib bergan. Shu tariqa u mumtoz adabiyot ruhida tarbiya topgan. Bu haqda uning o‘zi: “Men o‘zim hazrat g‘azallarini yoshlikdan o‘qib qalbga singdirganman va bu sohir so‘zdan hammaning bahramand bo‘lishini istayman”, – deb e’tirof etadi.

V.E. uzoq yillar O‘zbekiston televideniyesida “G‘azal oqshomi” ko‘rsatuvini olib borib, ko‘plab mumtoz shoirlar qatori N. g‘azallarining ma’no qirralarini xalqqa yetkazishga o‘z hissasini qo‘shdi. O‘zi ham uning “Qaro ko‘zum”, “Junun vodiysida”, “Aylagach”, Ko‘yida yig‘lar edim” kabi qator g‘azallarini sharhlab berdi.

V.E. ijodini N. ta’sirisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Xususan, g‘azallarida u buyuk salafi an’analarini mahorat b-n davom ettirdi, g‘azallariga tatabbu’ va muxammaslar yozdi. “Alisher Navoiy kemasi”, “O‘zbek Navoiyni o‘qimay qo‘ysa” nomli she’rlar yozdi, ko‘plab she’rlarida esa N. nomini hurmat b-n tilga oladi. Jumladan, “O‘zbegim” qasidasida ham betakror baytlar o‘qiymiz:

Mir Alisher na’rasiga aks-sado berdi jahon,
She’riyat mulkida bo‘ldi shoh-u sulton o‘zbegim…
Menga Pushkin bir jahon-u menga Bayron bir jahon,
Lek Navoiydek bobom bor, ko‘ksim osmon o‘zbegim.

N. haqida yozish V.E. u-n hamisha faxr-u iftixor tuyg‘usi b-n omixta bo‘lib ketadi. Chunki N. – o‘zbekning faxr-u g‘ururi timsoli. N. o‘zbek adabiyotini jahon adabiyoti yuksakligiga ko‘tardi. N. o‘zbek adabiyotining jahon so‘z san’atidagi maqomini tayin etdi. N. dunyodagi biror-bir daho san’atkordan kam emas, binobarin, rus Pushkini, ingliz Bayroni b-n maqtanganida o‘zbek ham sira xijolat bo‘lmay N.si b-n faxr etishi mumkin.

“Uchrashuv” she’rida nemislar Ikkinchi jahon urushida zabt etolmagan vatanimni bu xalqning buyuk farzandi I.V.Gyote qalam b-n oldi deb lutf etadi hamda nemis va o‘zbek xalqining ikki dahosini o‘zaro qiyoslaydi, ikki zabardast so‘z san’atkori asarlari qahramonlarining (Farhod va Faust, Majnun va Verter, Layli va Margarita) mushtarak qirralariga ishora qiladi.

V.E. bir qator maqolalari va suhbatlarida ham N. haqida fikr yuritadi, uning ijodiga baho beradi. Jumladan, “Javohirga bergisiz boylik” (1980) maqolasida ulug‘ shoir mahorati va ijodining umrboqiyligi sirlari xususida mushohada yuritsa, “San’at va tafakkur” maqolasida (1978) N.ning 2 mashhur baytini shoirlik mahorati nuqtayi nazaridan tahlil qilib beradi. “Mangulikka teng lahzalar” maqolasida (1991) ulug‘ shoir asarlarida ilgari surilgan umrboqiy g‘oyalar ustida mushohada yuritadi.

V.E. N.ning “Husni ortar yuzda zulfin anbarafshon aylagach”, “To muhabbat dashti bepoyonida ovoraman”, “Ko‘zung, ne balo qaro bo‘lubtur”, “Har qachonkim kemaga ul oy safar raxtin solur” kabi badiiy barkamol va mashhur 4 g‘azaliga muxammas bog‘lagan. Ma’lumki, shoir o‘zini ham bezovta qilib yurgan fikrlar har tomonlama teran va badiiy barkamol tarzda o‘z ifodasini topgan, ko‘nglini to‘lqinlantirib yurgan tuyg‘ular to‘kib solingan g‘azaldan ta’sirlanib va ilhomlanib, unga taxmis bog‘laydi va shu bahona o‘zining fikr-u tuyg‘ularini unga omuxta qilib yuboradi – natijada ikki ko‘ngil payvandidan iborat yaxlit muxammas dunyoga keladi. Farzand ota-ona muhabbatining hosilasi bo‘lganidek, bunday muxammas ham ikki shoir ijodining birgalikdagi mahsuli hisoblanadi. V.E. ning N. g‘azallariga bog‘lagan muxammaslari ana shunday ijodiy hamkorlikning yorqin namunalari darajasiga ko‘tarilgan. Chunki xalaf shoir tomonidan qo‘shilgan misralar salaf shoir g‘azalida ifodalangan badiiy voqelikni rivojlantiradi, to‘ldiradi va boyitadi. Taxmis misralari g‘azal baytlaridagi fikrlar u-n goh o‘ziga xos ochqich bo‘lib xizmat qilsa, goh ularning yangidan yangi qirralarini ochguvchi fikrlar shodasi, goh tashbehlar silsilasini boyituvchi badiiy topildiqlar halqasi bo‘lib maydonga chiqadi.

N.ning “Oy yuzli sevgilim har qachonki safar azmini aylab, kemaga safar jihozlarini yuklasa,

mening oshiq ko‘nglim ham to‘lqinli daryo kabi mavj uradi” mazmunidagi matla’ b-n boshlangan mashhur g‘azaliga nihoyatda go‘zal taxmis bog‘-laydi. Jumladan, g‘azalning ilk baytidagi salafi ifodalagan holatni mana bunday o‘ziga xos tas-virlar b-n boyitadi va ustoz shoir baytining o‘zi-ga xos nazmiy izohi bo‘lib xizmat qiladi:

Ayriliq oni yaqindur,
kema yo‘l bongin cholur,
Vah, meni tashlab firoqqa,
yor yiroqqa yo‘l olur,
Jon borib jono bilan,
sohilda bir jismim qolur,
Har qachonkim kemaga ul oy
safar raxtin solur,
Mavjlig‘ daryo kabi oshufta ko‘nglim
qo‘zg‘olur.

Ma’lumki, g‘azalning maqta’dan oldingi bayt-larida pand-nasihat ruhidagi, ijtimoiy-falsafiy mazmundagi fikrlarni ifodalash taomilga kirgan. N. ham g‘azalning ayni baytida “Bu dunyodan manfaat istab savdo dengiziga o‘zingni otmaki, ko‘ngilga boylik havosi tushsa, umr davlati qo‘l-dan chiqib ketadi” degan hikmatli so‘zga aylanib ketgan nihoyatda teran va yuksak hayotiy fikrni falsafiy mushohada o‘laroq ilgari suradi. O‘z nav-batida, V.E. donishmand shoirning aql qulog‘iga sirg‘a, ko‘ngil bo‘yniga tumor qilib taqsa bo‘ladi-gan bu hikmatli so‘zini tinglash u-n yer-u ko‘kni, butun mavjudotni bir lahza tin olishga chaqirar ekan, “Bu dunyoda kumush tanli yordan o‘zga kumush tilama!” Ya’ni: “Muhabbat davlatidan bo‘lak davlat istama!” degan o‘ziga xos ohorli va chuqur ma’noli hikmatni o‘rtaga tashlaydiki, bu aslida g‘azal muallifi bayt mazmunini chaqishdan kelib chiqadigan falsafiy quyuq xulosadir:

Ey shamol, jim tur, samo jim, mavjudot,
bir lahza jim,
Tingla, olam, tingla, odam,
sen agar bo‘lsang-da kim,
Buldur ustoz pandi: siymin
tandin o‘zga so‘rma siym,
Kirma savdo bahriga olamdan istab sudkim,
Siym naqdi tushsa, lekin umr naqdi siyg‘olur.

V.E. N. g‘azallariga qator tatabbu’lar ham qilgan. Lekin bu tatabbu’lar ohorliligi va za-monaviyligi b-n ajralib turadi. Jumladan, u sa-lafining mashhur “O‘n sakiz yoshindadur” g‘a-zaliga ergashib, hajviy bir g‘azal bitadi:

O‘n sakkiz ming olam oshubi
Padar boshindadir,
Ne ajab, chun o‘g‘li oning
O‘n sakkiz yoshindadir.

G‘azalda ota yoshligidan erkalab boshiga ko‘-targan farzandning 18 ga kirib – balog‘at yoshiga yetib ham hanuz otasining yelkasidan tushmayot-gani, o‘z yo‘lini topib ketolmayotganini fosh qi-lish ruhida yozilgan va farzand tarbiyasidagi og‘-riqli muammolaridan birini badiiy talqin qilgan.

V.E.ning “O‘p” radifli g‘azali N.ning ayni ra-difli g‘azali ta’sirida yaratilgani – unga tatabbu’ ekani yaqqol ko‘zga tashlanadi. “Do‘st bilan obod uying” g‘azalida esa salafining “Do‘st” radifli g‘a-zali ta’sirini ko‘ramiz. Yana N. ijodida “G‘uncha” radifli g‘azal, V.E.da esa “G‘uncha” nomli g‘azal mavjud. Bu g‘azallarda ham obyekt g‘uncha bo‘l-gani b-n talqin butunlay boshqa-boshqa.

V.E. N. ta’sirida yana qator bayt-u misralar ijod qilgan. Pok ko‘ngil, pok ishq, pok ish, pok so‘z, umuman, poklik N. asarlaridan qizil ip bo‘-lib o‘tishi ma’lum. Jumladan, “M.Q.”da o‘qiy-miz: “Odamiyning yaxshirog‘i uldurkim, porso va pok bo‘lg‘ay va Haq so‘zin ayturda bevahm-u bok bo‘lg‘ay. O‘zi pok-u ko‘zi pokni inson desa bo‘lur. Tili arig‘ va ko‘ngli arig‘ni musulmon desa bo‘lur. Musulmon uldurki, musulmonlar aning til va ilgidin emin bo‘lg‘aylar va ko‘zi ko‘nglidin mutmain”. Xalaf shoir qit’asidagi mana bu bayt ham ayni jihatdan buyuk salafi fikrlariga hamo-hang jaranglaydi:

Istasang toza ko‘ngilga qo‘nmasin zarra g‘ubor,
Pok so‘z-u pok ish va pok dil,
pok xayol bo‘lmoq kerak.

V.E. ning ba’zi she’rlari mazmun emas, shakl, ruh emas, ohang jihatidan N.ga hamohangdir. M-n, V.E.ning:

Seni yotlar tugul hatto –
Qilurman rashk o‘zimdan ham,
Uzoqroq termulib qolsam
Bo‘lurman g‘ash ko‘zimdan ham, –

misralariga N.ning:

Ne tahammul, gar yuziga tushsa
nomahram ko‘zi,
O‘z ko‘zumni ayni g‘ayratdin chu mahram
istamon,–

baytining bevosita bo‘lmasa ham, bilvosita ta’sirini ko‘ramiz.

V.E. qator she’rlariga N. misralari yoki hikmatli so‘zlarini epigraf qilib oladi. Jumladan, “Bizga so‘z tegdi kecha” nomli g‘azaliga “M.Q.” pandnomasidagi “Vale barcha rost ham degulik emas” degan hikmatli so‘zini, “Hijron yuki” g‘azaliga esa N.ning: “Aylagin jondin judo etguncha jonondin judo” misrasi epigraf qilib olinadi.

Olim-u jurnalistlar b-n qilgan suhbatlarida ham N. ijodi xususida muhim fikrlar bildiradi. M-n, I.Haqqulning N. she’rlari sharh-u tahliliga bag‘ishlangan “Zanjirband sher qoshida” kitobiga yozgan so‘zboshisida “she’riyatimiz hali Navoiy sari yuksalishini orzu qilishimiz kerak”-ligini ta’kidlar ekan: “Alisher Navoiyni anglash va his qilish o‘zbek xalqining tarixini, madaniyatini, qalbi ehtiyojlarini, o‘zligini anglash va his etish demakdir. Shunday ekan, Navoiyni, umuman, mumtoz adabiyotni bilish har bir o‘zbek farzandi uchun ham qarz, ham farz”, – deb yozadi. Sharq mumtoz so‘z san’ati va tasavvuf falsafasi bilimdoni N.Komilov haqidagi maqolasida esa: “Navoiy barcha g‘azal va dostonlarida majoziy ishqni vosita qilib, ilohiy ishqni kuylagan ekan!” – degan xulosani bayon etadi.

Umuman, V.E. N. ijodini bir n.shunosdan kam bilmas edi. Shuning u-n ham N. asarlari badiiyati va buyuk so‘z san’atkori mahoratining sirlari haqida bir kitob yozish orzusini bayon etgan edi. Ijodi esa ulug‘ shoirning ilhombaxsh ta’siridan xoli emas. Bu haqda uning o‘zi: “Navoiy ijodi meni she’riyatga olib kirgan. Ko‘plar kabi u mening ham buyuk ustozim, piri komilimdir. Men hamisha bu yuksak ijod sehri oldida hayratga tushaman va unga intilib yashayman”, – degan edi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Воҳидов Э. Тонг нафаси. – Т., 1961; Воҳидов Э. Шарқий қирғоқ. – Т., 1982; Воҳидов Э. Руҳлар исёни. – Т., 1982; Воҳидов Э. Келажакка мактуб. – Т., 1983; Воҳидов Э. Муҳаббатнома. 1-жилд. Садоқатнома. 2-жилд. – Т., 1986; Воҳидов Э. Шоиру шеъру шуур. – Т., 1987; Воҳидов Э. Изтироб. – Т., 1994; Воҳидов Э. Асарлар. 8 жилдик. – Т., 2000–2018; То қуёш сочгайки нур (Эркин Воҳидов ҳаёти ва ижоди замондошлари таҳлилида). – Т., 2018; ЎзМЭ. 2-жилд. – Т., 2001; Очилов Э. Эркин Воҳидов ижодида Алишер Навоий анъаналари // “Ўзбек адабиётшунослигининг долзарб масалалари” (Э.Воҳидов ва Ў.Ҳошимовларнинг таваллудига бағишланган) мавзуидаги Республика илмий-амалий анжуман материаллари. – АнДУ, 2021.*

E.O.

VUJUD – arabcha so‘z bo‘lib, izohli lug‘atlarda quyidagi ma’nolarda keladi: 1. Mavjudlik, borliq; 2. Gavda, jism. N. asarlarida ham, avvalo, V. mavjudlik, borlik ma’nolarini namoyon qilib, olam va odamga nisbatan barobar qo‘llanadi. “M.Q.”da dunyo va odamzodning V. yaratilishidan murod, Muhammad (s.a.v.) vujudi ekanligi aytiladi: “Va durudi noma’dud ul mahbubi oqibat mahmudg‘akim, Haq taolo anga qurb va manzilat berdikim, olam va odam vujudidin maqsud aning vujudi erdi. Xujasta tiynati ruhi pokdin tohir va farxunda xilqati anosir tarkibidin pok erkani zohir”. Shuningdek, vujud-badan jon ma’lum muddat saqlanuvchi

joy, qal'a ekanligi ko'p bor eslatiladi: "Har kim adam nihonxonasidin vujud anjumanig'a qadam urubtur va bu baqosiz oromgohda bir nafas o'lturubtur, yana qaytib asliy vatang'a azm etmak kerak va qaydin kelibdur yana ul yon ketmak kerak". Bunday fikr-qarashlar, ayniqsa, lirik merosida yanada teran ifodalanadi:

Chun adam sahrosidin keldim vujud ayvonig'a,
Buzg'ay erdi marg selobi ul ayvonimni kosh.

Shu ma'noda V. fano, jon, ruh esa baqo ma'nosida o'zaro zidlanadi. V. istaklaridan voz kechish, ruhni kamol toptirish N. asarlarining yetakchi mavzularidandir. V. istaklari deganda, adabiyotda bashariy istaklar nazarda tutiladi. Undan qutulish oliy maqsad ekanligi uqtiriladi:

Qil Navoiyni vujudi nangidin, yo Rab, xalos,
Chun vujudin barcha olam
ahlig'a nang aylading.

Demak, ruh tahliyasida V.ning ham tarbiyasi juda muhim. Zero, ishqdan o'rtanish vujudga ham tegishlidir. N. buni badiiy tarzda shunday ifodalaydi:

Vujudum o'rtading, ey ishq, emdi tarkim tut,
Xudoy uchunki, meni qayda ko'rdung, anda unut.

N. V. tushunchasini "bud" so'zi b-n ham ifodalaydi:

Anglag'il nobudini yuz qatla xushroq budidin,
Solikekim, faqr aro budi aning nobud emas.

Tasavvuf lug'atlarida V. eng mukammal shakldagi vajd holi, Haqqa yetish ma'nosida keladi. Solik bashariy sifatlardan foniy bo'lgach, Haq vujudiga birlashur.

Ey Navoiy, solik ersang, Haq vujudin bil vujud,
Mosivollohni – adam, Vallohu a'lam bissavob.

"N.M." tazkirasida valiy zotlarning holi ham shunday bayon qilinadi: "Haqdin boshqaga vujudimda biror zarra, siynamda biror joy qolmadi". Va debdurki, qirq yildirki, nafsim bir ichgucha sovuq suv va achchiq dug' tilar".

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005; Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. – Душанбе, 1987; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Т., 1983.*

Z.R.

VUJUDI MUTLAQ – Mutlaq borliq, Alloh. Tassavvufiy istilohga ko'ra, faqat Allohning vujudi bor. Mavjud boshqa narsalarning mustaqil va o'z vujudlari yo'q. Vujud bitta va yagona bo'lib, u ham Allohning vujudidan iboratdir. N. asarlarida ham shunday qarashlar bor. Jumladan, "M."da shunday deyiladi: "Rahim ham sen, rahmon ham sen, azim ham sen, subhon ham sen. Subhonolloh, ne kibriyovu azamatdurkim, sendin o'zgaga vujud itloqi bo'hton va tuhmatdur. Zoting – qayyumi barhaq, vujudung boqiyi mutlaq. Sendin o'zga mavjud ko'runganlar namudi benamud, balki nobudu nomavjud, vujud va mavjuddin sen maqsud. Taolo sha'nuka va amma ehsonuka va lo iloha g'ayruka. Yo vadud va Ma'budi vojib ul-vujud". N.ning mutasavvifiy fikr-mulohazalari "N.M."da valiylar tilidan ham beriladi. Tazkirada Shayx Avhaduddin Kirmoniyning quyidagi fikri keltiriladi: "Naqqoshning fitnasi o'z naqshida, o'rtada bir kishi yo'q, xotirjam bo'l! Vujud haqiqati haqida o'zi gapirdi, o'zi eshitdi, shu sababdan o'zi ko'rsatdi, o'zi ko'rdi. Allohga qasamki, Allohdan boshqa haqiqat mavjud emasligiga ishonish lozim". N.ning Xoliq va xalq haqidagi nuqtayi nazari nasriy asarlarida hikmatlar tarzida kelsa, lirikasida hol ifodasi orqali beriladi:

Tengdurur dahrg‘a vujudu adam,
Balki ma’dum barcha mavjudi.

Butun borliq abadiyligini inkor qilib, Haq vujudi boqiyligini isbot etmoqlikka tariqatda “nafyi isbot” deyiladi. Bu zikr paytida o‘ziga xos so‘z va harakatlar orqali amalga oshiriladi. N. g‘azallaridan birida bu zikrning nafsni qalb darajasiga ko‘tarishdagi ta’sirini shunday izohlagan edi:

Kimki “illalloh” ila ko‘ngliga istar payvand,
Nafyi “lo”sidurur, eldin kesilurga miqroz.

Zikr ahliga ko‘ra, “La ilaha” Haqdan boshqasini rad etib, “Illalloh” Haq taoloni isbot etadi. Uludog‘ “Tasavvuf terminlari lug‘ati”da V.M.ni shunday izohlaydi: “Allohning vujudi yo‘qlik ko‘zgusida aks etishi bilan boshqa narsalar ham ko‘rinish beradi. Lekin ular o‘rtasidagi farq shakl va ko‘rinishdadir. Aslida tajalliylar ham, tajalliy etgan ham Haqning borlig‘idan iborat”. N.shunos Alibek Rustamov esa V.M.ni quyidagicha sharhlaydi: “… Bu tushuncha G‘arb falsafasida “substansiya” deb ataladi. Buning “qayyumi mutlaq” degan ma’nosi va lug‘aviy ma’nosi “ega”, “murabbiy”, “yaratuvchi” bo‘lgan so‘zlar bilan ifodalangan ma’nolari bor: “Va ul mashg‘ulluq “Ma xalaqalloh” fanosidur va “mo xalaqalloh” Xoliqining baqosidur. Nafy kalimasi bilakim, “lo iloha” bo‘lg‘ay, mosivollohni unutmoqdur va isbot kalimasi bilakim, “Illalloh” bo‘lg‘ay ko‘ngulni ovutmoqdur va mashg‘ul tutmoqdur”.

N.ning turli she’riy ifodadalarida ham, albatta, bu ma’nolarni ko‘rishimiz mumkin. M-n:

Istagan foniy vujudimdin asar,
Topqoy ul boqiy vujudinda xabar.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005. Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. – Душанбе, 1987; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Т., 1983.*

Z.R.

VUZARO – N.ning “M.Q.” asarida zikr etilgan qirqta ijtimoiy guruhning biri. V. – vazir so‘zining ko‘plik shakli bo‘lib, vazirlar ma’nosini anglatadi.

O‘rta asr Sharq davlatlarida vazirlar, asosan, devon, moliya ishlari, iqtisodiy masalalar b-n shug‘ullangan. Davlat xazinasini to‘ldirish, soliqlar, podshohlik hisobidan turli ishlarga mablag‘ ajratish – bularning hammasi bevosita vazirlar faoliyat olib boradigan sohalar edi. Boshqacha qilib aytganda, mamlakatning obodligi, xalqning farovon yashashi ko‘p jihatdan vazirlarga bog‘liq bo‘lgan. Pul, moddiy boyliklar b-n bog‘liq sohalarda o‘g‘rilik, riyokorlikning ko‘p bo‘lishi barcha davrlar u-n xos, jumladan, vazirlar orasida ham, bir tomondan, xalqning, ikkinchi tomondan, davlatning mulkiga, xazinaga xiyonat qiladigan, odamlarni shilishga o‘rgangan kishilar ko‘p bo‘lgan va bu hol jamiyatda ular haqida salbiy tasavvurlar hosil bo‘lishiga, muayyan stereotiplarning shakllanishiga olib kelgan va “M.Q.”da ham ana shuning ta’sirini ko‘rish mumkin. N. “M.Q.”ning beshinchi faslini mazkur ijtimoiy guruhga bag‘ishlar ekan, ular haqida faqat salbiy fikrlarni bayon qiladi. N. ularni noinsof va zolimlar deb ataydi. Uning fikricha, vazirlar mamlakat xalqi yaratgan boylikni sovuruvchilardir: “Bu zolimlar – mulkni barbod berguvchilardur va mulk ahli yig‘ushturg‘onlarin biturguchilardir”, – deb yozadi u. Zolim vazirlarni fosh etar ekan muallif ilonlar, chayonlar singari tashbehlarni qo‘llaydi. N.ning mazkur fasl so‘ngidagi so‘zlari alohida diqqatga sazovordir. U zolim vazirlarning munosib jazo topishlariga umid qiladi va buni quyidagi tarzda ifodalaydi: “Necha bu nish mazlumlarg‘a sanchilg‘ay, umid ulki boshlari ajal toshi bila

yanchilg‘ay”. Ulug‘ shoir va mutafakkirning vazirlar haqida bunday yozishi, albatta, bejiz emas, zero u bu kishilarning xalqqa qilgan zulmini ham o‘g‘rilik va qing‘irliklarini ham o‘z ko‘zi b-n ko‘rgan va guvoh bo‘lgan hamda qo‘lidan kelgancha ularga qarshilik qilishga, adolatsizlikka yo‘l qo‘ymaslikka intilgan. Uning Majididdin, Nizomulmulk singari vazirlar b-n kelisha olmaganining asl sabablaridan biri ham shu edi. N. o‘z asarlarida boshqa zolim vazirlarni ham tilga olgan. M-n, “M.N.”da Sone’iy haqida shunday yozadi: “Vazir erdi. Zulm va badnafslig‘i jihatidin podshoh siyosatig‘a giriftor bo‘ldi va maqtul bo‘ldi”. O‘sha yerning o‘zida Xoja Musayyab haqida quyidagi so‘zlarni o‘qishimiz mumkin: “Ul dag‘i vazorat behudlig‘idin musulmonlarg‘a ajab zulmlar qilurg‘a bel bog‘lab erdikim, qazo devonidin bevosita siyosatqa mustavjib bo‘lub va el aning sharridin halos bo‘ldilar”. Shu b-n birga N. asarlarida odil, insofli hamda diyonatli, donishmand vazirlar haqida ham qaydlar bor. Shuningdek, “F.Sh.” dostonida sadoqatli, tadbirkor, yurtni g‘amini yeydigan vazir Mulkoro obrazi yaratilgan. Bu obraz talqinida N.ning vazir qanday bo‘lishi kerakligi haqidagi qarashlari o‘z aksini topgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

Q.E.

X

XAVARNAQ (ar. – f.) – Bahrom u-n qurilgan afsonaviy qasr. Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, X. yer yuzida tengi yo‘q muhtasham qasrlari b-n shuhrat topgan shahar bo‘lgan. N. “X.”da tasvirlagan.

“S.S.” syujetiga ko‘ra Bahrom Go‘r u-n uning otabegi Shoh Nu’mon o‘g‘li Munzir buyrug‘i b-n Sinmor nomli me’mor tomonidan Yamanda qurilgan afsonaviy qasrning nomi:

Ham Ajamdin qilib, Arabda maqom,
Ham Arabdin etib, Ajamg‘a xirom.

Ishratidin Yamang‘a ravnaq o‘lub,
Qasri ayshi aning Xavarnaq o‘lub.

Bo‘yla qasrni yasar zamon me’mor,
Charx me’mori kelib Sinmor.

***Ad.**: Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Шамсиев П., Иброҳимов С. Навоий асарлари луғати. – Т., 1972.*

B.R.

XADICHABEGIM – Sulton Husayn Boyqaroning xotini. Shohg‘arib va Muzzafar Mirzolarning onasi. Shohning sevikli xotini bo‘lganligi u-n unga katta hurmat va e’tibor ko‘rsatilgan. N. asarlarida uni “Xadichayi zamon”, “Bilqisi davron”, “Mahdi ulyo” deb ulug‘lagan. X. oldin Sulton Abusaidning g‘unchachisi bo‘lgan va undan bir qiz ko‘rgan. Husayn Boyqaro uni o‘z nikohiga olgandan keyin Boburning so‘zlari b-n aytganda, “g‘unchalilik martabasidin begimlik martabasiga taraqqiy qildi”. Husayn Boyqaro hukmdorligining dastlabki yillarida X. davlat ishlariga uncha ko‘p aralashmagan. Uning hokimiyatga intilishi, eriga ta’sir ko‘rsatishga urinishi 90-yy.dan keyin yaqqol ko‘zga tashlanadiki, bu o‘g‘illarining voyaga yetishi hamda valiahdlik masalalari b-n bog‘liq edi. X. o‘g‘li Muzaffar mirzoni barcha shahzodalardan yuqori bir maqomda turishini, uning taxt vorisi bo‘lishini istagan va shu maqsad yo‘lida turli fitnalar uyushtirib, Husayn Boyqaro davlatida o‘zaro nizolar va ziddiyatlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan. Mo‘min mirzoning o‘ldirilishidek katta fojianing (1497) asosiy aybdorlardan biri ham X. edi. Husayn Boyqaro vafotidan so‘ng uning o‘zi ham ayanchli fojialarni boshidan o‘tkazgan. Shayboniyxon tomonidan hibsga olinib, qiynoqqa solingan. Bu azoblardan qutulib, Astrobodga borganda esa o‘g‘li Muzaffar mirzodan judo bo‘lgan (1507).

X. nomi N. asarlarida tilga olingan. Shoirning unga bag‘ishlangan ayrim g‘azallari ham mavjud. Undan tashqari “S.S.” dostonining X bobi to‘laligicha X. madhidan iborat:

Qaysi Bilqis, Sorayi Uzmo,
Qaysi Sora, Xadichayi Kubro...

Lekin bulardan qat’iy nazar N. va Xadichabegim o‘rtasidagi munosabatlar murakkab bo‘lgan. Xususan, 1490-yy.dan boshlab ularning maqsad va intilishlari bir-biriga butunlay muvofiq emas edi. X. va uning ittifoqchisi Nizomulmulk Husayn Boyqaro va uning o‘g‘illari orasiga nifoq solishga urinar edilar, chunki shahzodalar, xususan, to‘ng‘ich o‘g‘il Badiuz-

zamon otasi b-n yuz ko‘rmas bo‘lsa, shohning butun mehr-muhabbati X.ning o‘g‘liga qaratilar, uning taxt vorisi bo‘lish imkoniyati ortar edi. N. esa, aksincha, shoh va o‘g‘illari o‘rtasidagi nizoga barham berish, o‘zaro urushlarga yo‘l qo‘ymaslik, mamlakatda tinchlikni saqlashni asosiy vazifa deb bilgan va shu maqsadda o‘zining barcha imkoniyatlarini ishga solgan. Shaxsan o‘zi Balxga, Badiuzzamon huzuriga borib, uni otasi b-n yarashishga ko‘ndirgan. Lekin buni istamagan doiralar Husayn Boyqaroga ta’sir o‘tkazib, oxirgi lahzalarda ishni buzishga muvaffaq bo‘lgan va sulh tuzilmagan. Shunga qaramay, N. va u boshliq uzoqni ko‘ruvchi davlat arboblari o‘z sa’y-harakatlarini to‘xtatmaganliklari, qolaversa, o‘zaro nizolarning mudhish oqibatlari hammaga, shu jumladan, shoh va uning o‘g‘illariga ham ayon bo‘lib qolganligi tufayli yarash bitimi tuzilib, qarama-qarshilikka chek qo‘yildi. Nizolar va fojialar kimlar tufayli yuz berganligi endi ko‘pchilikka ma’lum edi va vaziyat kimnidir jazolashni talab qilar edi. Natijada, Nizomulmulk va uning o‘g‘illari, ayrim tarafdorlari qatl etildilar (1498). Lekin Sultonning suyukli rafiqasi u-n esa go‘yo bu ishlarning unga mutlaqo daxli yo‘qdek edi. Bobur Mirzo “Boburnoma”da X.B. haqida: “O‘zini oqila tutar edi, vale beaql va purgo‘y xotin edi, rofiziya (shia mazhabining bir oqimi) ham ekandur”, – deb yozadi. X. Husayn Boyqaro vafot etguniga qadar davlatda o‘z ta’siri va e’tiborini saqlab qoldi. Sulton vafot etgandan so‘ng (1506) u o‘g‘li Muzaffar mirzoni Badiuzzamon b-n sheriklikda podshoh deb e’lon qilishga muvaffaq bo‘ldi. Biroq Shayboniyxon istilosi uning barcha sa’y-harakatlarini chippakka chiqardi.

Ad.: *Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 2002.*

Q.E.

XAYOLIY BUXORIY (t.y.n. – Buxoro – 1446/1447) – shoir. N. “M.N.”da tilga olgan. Xoja Ismat Buxoriyning shogirdi. Faqat shoirlikda unga shogird bo‘libgina qolmay, tariqatda ham muridi edi. Bisotiy Samarqandiy, Shayx Ozariy Tusiy, Kotibiy Turshezi, Shohiy Sabzavoriy, Tolib Jojarmiy, Qosim Anvor, Yahyo Sebak, Abdurahmon Jomiylarning zamondoshi bo‘lib, she’rlarida ular b-n hamohanglik ko‘zga tashlanadi. Darveshlik tariqini tutib, faqirona kun kechirgan.

Davlatshoh Samarqandiyning yozishicha, iste’dodli va xushta’b kishi bo‘lib, darveshona, ravon va pokiza she’rlari bor va uning devoni Movarounnahr, Turkiston va Badaxshonda katta shuhrat tutgan. Abdurahmon Jomiy ham uning she’rlari nozik taxayyuldan xoli emasligini ta’kidlab, ijodidan namuna sifatida 2 baytini keltiradi.

Kamol Xo‘jandiyga ergashib g‘azallar yozgan. Asosan oshiqona g‘azallar ijod qilgan bo‘lsa ham, ularda ijtimoiy mazmun va zamonadan shikoyat ohanglari ko‘zga tashlanadi. She’rlari qasida, g‘azal, musammat, qit’a va ruboiy kabi janrlardagi namunalardan iborat bo‘lib, devoni Movarounnahr, Badaxshon, Turkistonda mashhur edi. Bir muddat Hirotda ham yashagani u-n Xayoliy Hiraviy ham deyiladi.

X.B. devoni 1974-y.da Tabrizda nashr etilgan bo‘lib, 2 ming baytdan ziyod she’rni o‘z ichiga oladi. 3 qasida, 1 musammat, 355 g‘azal, 3 qit’a, 8 ruboiy va 6 farddan iborat. X.B. nashrida 1 qasida va 12 g‘azal ortiq.

N. “M.N.”da uning ijodidan namuna sifatida bir g‘azalining 2 baytini keltiradi. M-n:

Ey tiyri g‘amatro dili ushshoq nishona,
Xalqi ba tu mashg‘ul, tu g‘oyib zi miyona.

Tarj.: Oshiqlar dili g‘aming o‘qiga nishona bo‘lib, barcha sen b-n mashg‘ul-u sening o‘zing o‘rtada yo‘qsan.

O‘zi xushxulq va xushtabiat yigit bo‘lib, qabri Buxorodadir.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Мавлоно Хаёлий Бухорий. Девон. – Хўжанд, 2015; Бухорийлар бўстони. – Т., 1998; Давлатшоҳ Самарқандий. Тазкират уш-шуаро. – Хўжанд, 2015; Абдураҳмон Жомий. Баҳористон. – Душанбе, 2014. Раҳматов Б. Муқаддима // Мавлоно Хаёлий Бухорий. Девон. – Душанбе, 2015.*

E.O.

“XAZOYIN UL-MAONIY” (“Ma’nolar xazinasi”) – N.ning 1491–1498-yy.da tuzilgan 4 devondan iborat mashhur lirik kulliyoti. Ma’lumki, Amir Xusrav Dehlaviy sermahsul hayoti davomida yaratgan ulkan she’riy merosini umr fasllariga moslab 5 devon tartib berish b-n Sharq adabiyotida ayni yo‘nalishda devon tuzish an’anasini boshlab bergan edi. N. maslahatiga ko‘ra, Abdurahmon Jomiy bu an’anani davom ettirib, she’rlaridan 3 devon tuzadi. O‘z navbatida, ustozining: *“Sening dog‘i nazming turkcha alfozda chun mutaaddid bo‘lubtur, sen dog‘i har birisini bir ism birla mumtoz qil va har qaysini bir laqab bila jilvasoz etkil”, –* degan tavsiyasiga binoan N. ham umr fasllariga moslab 4 devon tuzadi. Buning u-n barcha she’rlarini to‘plab, tahrir qiladi, har bir harfga yangidan hamd-u na’t yozib qo‘shadi, yetishmagan harflar u-n yangi g‘azallar ijod qiladi va Husayn Boyqaro nazaridan o‘tkazib, ularni 4 devonga teng taqsimlaydi.

Ma’lumki, “X.M.”ga qadar ham N.ning muxlislari tomonidan tuzilgan va shartli ravishda “Ilk devon” (1465) va “Oqquyunli muxlislar devoni” (1472) deb atalgan devonlari va o‘zi tomonidan tartib berilgan “B.B.” (“Badiiylik ibtidosi”, 1470–76) va “N.N.” (“Behad nodirliklar”, 1476–82) devonlari bo‘lgan. “X.M.” ana shu devonlarga kirgan va ulardan keyin yozilgan she’rlari asosida tuzilgan. Chunki shoirning o‘zi “X.M.” debochasida ta’kidlaganidek, bu devonlar tuzilganidan keyin o‘tgan oz fursatda ko‘p she’r yozgan va ularni tartibga solish xayolida yurgan. *“Xotirg‘a kelur erdikim, agar bu avroqqa rabtu tartib berilmasa, bir havodis tundbodi eskach, har safhasin bir yon sovurg‘ay va agar bu gulbarglarni zeb-u oyin bila bir guldasta bog‘lanmasa, bir navoyib nasimi yetkach, har varaqin bir yon uchurg‘ay”.* Shu orada Husayn Boyqarodan barcha she’rlarini to‘plab, bir to‘plam tuzish haqida hukm bo‘ladi va bu ishda har qancha yordam kerak bo‘lsa, tayyorligini izhor qiladi. “Ey qadimiy bandayi xos-u ey boyri xodimi zaviy ul-ixtisos, burung‘i ikki devonkim, bizning hukm-u xitobimiz bila murattab qilding va kulliyot-u juzviyotin bizning mashvarat-u ta’lim-u istisvobimiz bila tuzattingkim, birining ishqomiz abyotidin bu eski dayrning rafi’ toqida ushshoqning sho‘r-u g‘avg‘osidur va yana birining shavqangiz g‘azaliyotidin bu qadimiy mani’ gunbad ravoqida muhabbat ahlining ho‘yu alolosi. Andin so‘ngra yig‘ilg‘an ash’orningu nazm rishtasig‘a tortilg‘an durri shahvorning adadi burung‘i devonlardin ortqan chog‘lig‘durur va bu latofatsifot xo‘blar va malohatsimot mahbublar bila yana ikki devon tartib bersa bo‘lurdek ma’lum bo‘ladur. Netgungdurkim, bu ishdin dilbandroq bo‘lg‘ay-u ne qilg‘ungdurkim, bu shug‘ldin sudmandroq bo‘lg‘ay. Emdi avlo budurkim, bu g‘arib ishga ko‘ngul kelturgaysen, balki hukm bu erurkim, bu ajib amrg‘a xoma surgaysen-u tafakkur xilvatgohida xayol sho‘x-u ra’nolari bila bazm tuzgaysen va to falak gardish qilur, bashar jinsining xayolig‘a kelmagan a’jubani elga ko‘rguzgaysen”.

Muttasil xastalig-u quvvatsizlig-u nochorlik dastidan umidsiz bir ahvolda go‘yoki zulmat ichida qolgan bu xoksorga ayni farmon tufayli obi hayot yetishgandek bo‘ldi, deb lutf etadi bu haqda shoirning o‘zi. Shundan keyin u shiddat b-n she’rlarini to‘plash, saralash, tahrir qilish, yangilarini yozishga kirishib ketadi va 50–60 yoki 100 taga yetganida Husayn Boyqaroga yetkazib, uning nazaridan o‘tkazib turadi.

Devonlar Husayn Boyqaro amriga ko‘ra tuzilgani va har bir she’r shoh nazaridan o‘tib, uning maslahati va tavsiyalari asosida ko‘rib chiqilgani va joylashtirilgani jihatidan N. devonlari Sultonning mislsiz ta’bidek benazir-u har bir shohbayti

uning qutlug‘ zotidek jahongir bo‘lishini umid qiladi, bu ma’no gavharlari shohning ta’bi daryosidan-u zehni konidan hosil bo‘lgani va so‘z-u iboralar xazinasi o‘sha ma’nolar gavharidan to‘lgani u-n “X.M.” deb ataganini ta’kidlaydi.

Bu bahrki, ganji lomakoniy dedilar,
Har qatrasin obi zindagoniy dedilar.
Shah maxzani tab’idin nishoni dedilar –
Kim, ani “Xazoyin ul-maoniy” dedilar.

To‘rt devondan iborat bo‘lganligidan u “Chor devon” (“To‘rt devon”) nomi b-n mashhur bo‘lgan. Sharq she’riyatidagi 16 ta janrda yozilgan she’rlarni o‘z ichiga olgan bu majmuaning ilk devoni “G‘.S.” (“Yoshlik g‘aroyibotlari”) deb atalib, 650 g‘azal, 3 muxammas, 1 mustazod, 1 tarje’band, 1 masnaviy, 50 qit’a va 133 ruboiydan tashkil topgan. “N.Sh.” (“Yigitlik nodirliklari”) deb atalgan ikkinchi devon 650 g‘azal, 3 muxammas, 1 mustazod, 1 musaddas, 1 tarji’band, 1 tarkibband, 50 qit’a, 52 muammodan iborat. Uchinchi devon “Badoye’ ul-vasat” (“O‘rta yoshlik go‘zalliklari”)da 650 g‘azal, 2 muxammas, 2 musaddas, 1 mustazod, 1 tarje’band, 1 qasida, 60 qit’a, 10 lug‘z (chiston), 13 tuyuq mavjud. To‘rtinchi devon bo‘lgan “F.K.” (“Keksalik foydalari”)da esa 650 g‘azal, 2 muxammas, 1 mustazod, 1 musaddas, 1 musamman, 1 tarje’band, 1 soqiynoma, 50 qit’a va 86 fardni o‘zida jamlagan. Ma’lum bo‘ladiki, “X.M.”da jami 2600 g‘azal, 4 mustazod, 10 muxammas, 5 musaddas, 4 tarje’band, 1 masnaviy (ustozi Sayyid Hasan Ardasherga maktub), 210 qit’a, 133 ruboiy, 1 tarkibband, 52 muammo, 10 lug‘z (chiston), 13 tuyuq, 1 qasida, 1 musamman, 1 soqiynoma, 86 fard yoki jami 3132 she’r mavjud bo‘lib, 44900 misradan iborat.

“M.L. ”da shoirning o‘zi bu to‘rt devon ta’rifida shunday ma’lumot beradi:

“Ul jumladin, biri “G‘aroyib us-sig‘ar” devonidurkim, kichik yoshda taqririmdin guzorish va tahririmdin nigorish topibdurkim, maoniy g‘urabosidin g‘arib alfoz libosig‘a kiyurupmen va xalq ko‘nglin g‘aribiston ahli o‘ti bila kuydurupmen.

Yana “Navodir ush-shabob” devonidurki, yigitlik avoilida bayonim kilkidin namoyish devonig‘a va oroyish bo‘stonig‘a kiribdurkim, ul navodir tamoshosidin yigitlik mulkida g‘avg‘o solibmen va mulk yigitlari ko‘nglidin orom va qarorni olibmen.

Yana “Badoye’ ul-vasat” devonidurkim, umr avositida xayolim xomasi aning zebig‘a naqshbandlig‘ va ziynatig‘a sehrpayvandlig‘ qilibdurkim, ul bade’lar vositasidin shaydo ko‘ngullar eshigin ishq toshi bila qoqibmen va ul uyga fitna va ofat o‘tin yoqibmen.

Yana “Favoyid ul-kibar” devonidurkim, hayot avoxirida taxayyulum xomasi ani rashki nigorxonayi Chin va g‘ayrati xuldibarin qilibdurkim, anda ulug‘larga foidalar zulolin yetkurupmen va havaslari shu’lasiga nasoyih zulolidin suv urubmen.

Bu to‘rt devon ovozasin chun rub’i maskunga yetkurupmen, “Xamsa” panjasiga panja urupmen”.

Aslida N.da keksalik chog‘larida barcha she’rlarini to‘plab, xronologik tartibda 4 devon tuzish niyati bo‘lgan. Lekin “X.M.”ga muharrirlik qilgan Husayn Boyqaro uning bu g‘oyasini ma’qullamagan ko‘rinadi. Chunki devonlarda she’rlar aralash keladi, ya’ni yoshlik va yigitlik davri devonlariga o‘rta yoshlik va qarilikda yozilgan she’rlar ham kiritilgan. Shuning u-n devonlar nomini shartli ma’noda tushunish kerak. Bu haqda shoirning o‘zi Husayn Boyqaroga yo‘llagan maktubida “burung‘i ikki devon ash’ori bila so‘ngra aytilg‘onlari bila qo‘shub, tartib bila to‘rt ayrildi, dag‘i to‘rt ot qilildi”, deb yozadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; ЎзМЭ. 1-жилд. – Т., 2000; Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т., 1976; Абдуқодиров А. Амир Алишер Навоий. – Хўжанд, 2013; Очилов Э. Алишер Навоий. – Т., 2013; Сирожиддинов Ш., Юсупова Д., Давлатов О. Навоийшунослик. – Т., 2018; Алишер Навоий: Қомусий луғат. 1–2-жилдлар. – Т., 2016.*

E.O.

XAYROBOD – Astrobod viloyatidagi qishloq. N.ning mulki bo‘lgan. N. mamlakatning boshqa joylarida bo‘lgani singari X.da ham bunyodkorlik, obodonchilik ishlarini amalga oshirgan. Ana shunday ishlardan biri X. to‘g‘onining qurilishi edi. Natijada ushbu mavzedagi ekinzorlar va bog‘-rog‘larning suv b-n ta’minlanishi yaxshilangan. X. obod bir kentga aylangan. “Makorim ul-axloq”da ushbu qishloq b-n bog‘liq bir voqea hikoya qilinadi. Ma’lumki, Badiuzzamon mirzo ham Astrobodda hokimlik qilgan. O‘sha vaqtlarda u viloyatni aylanib yurib, X.ga kelgan. Mirzo bu yerni yoqtirib qoladi va unda qishloqni sotib olish fikri tug‘iladi. U o‘zining atrofidagi kishilarga murojaat qilib, “Biron kishi o‘rtada turib bizga bu qishloqni sotib olib bersa edi”, – deydi. Yig‘inda N. ning xizmatchilaridan bo‘lgan G‘iyosiddin Muhammad Dehdor hozir edi. U bu so‘zni eshitib, shunday arz qildi: “Valine’matim va maxdumimg‘a mening yaqinlik va noibligim shu qadarki, ul hazratning mol-u ashyosini istagancha tasarruf qilishim mumkin. Endilikda ul kishi taraflaridan bu qishloqni shahzodaga tortiq qildim”. Sulton Badiuzzamon Mirzo xursand bo‘lib, hazil tariqasida mazkur xojaga tizza urib qo‘ydi.

Bu xabar oliy tabiatli N.ning qulog‘iga yetgach, Xoja G‘iyosuddindan mamnun bo‘lib, bu qilgan yaxshi xizmati u-n u kishiga maxsus sarupo va bir ot puli deb 1000 kepakiyni Astrobodga yubordi.

Manbalarda N.ning X.da ko‘prik qurdirgani ham qayd etilgan.

Ad.: *Навоий замондошлари хотирасида. – T., 1985; Ғиёсиддин Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – T., 1967.*

B.R.

XAYRULLAYEV Muzaffar Muxiddinovich – (17.11.1931, Qo‘qon) – 2004) akad, “Forobiyning dunyoqarashi va uning falsafa tarixida tutgan ahamiyati” mavzusida (PhD) (1966) ilmiy darajasini olgan. Sharq falsafasi tarixi yuzasidan “Abu Nasr al-Forobiy” (Toshkent: Fan, 1982), “Abu Abdulloh al-Xorazmiy” X asr (Toshket: Fan, 1988), “O‘rta Osiyoda ilk Uyg‘onish davri madaniyati” (Toshkent: Fan, 1994) kabi kitoblar muallifi. Akad. M.Xayrullayev rahbarligida sharqshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti so‘fizm b-n bog‘liq ilk marta tadqiqotlar to‘plamini ham yaratgan.

M. Xayrullayev Sharq falsafasini o‘rganish jarayonida Imom Buxoriy, Al-Forobiy, Al-Xorazmiy, Ahmad Yassaviy, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek faoliyati b-n bog‘liq tadqiqotlari qatorida N. ijodiga va asarlariga ham murojaat qilgan hamda u Mirzo Ulug‘bek va N.ni temuriylar Uyg‘onish davrining “madaniy ko‘tarinkilik cho‘qqilari” deb yuksak baholagan.

Olim yana N. qurdirgan ijtimoiy xarakterdagi binolar va uning ijtimoiy fikrlari yuzasidan kuzatishlar olib borgan. Sulton Husayn Boyqaro va N. o‘rtasidagi do‘stona munosabatlarga ham xolis fikr bildirgan.

Ad.: *Хайруллаев М. Ўрта Осиёда илк Уйғониш даври маданияти. – T., 1994.*

B.R.

XALIL IBN AHMAD (Taxallusi; to‘liq ismi: Abu Abdurahmon al-Xalil ibn Ahmad ibn Amr ibn Taymir) (718/19–791/92, Basra) – mashhur arab olimi, aruz ilmi asoschisi. Al-Basriy taxallusi b-n ham mashhur bo‘lgan. Basra filologiya maktabi namoyandasi. Asarlari shogirdlari Sibavayh, Almaiy va boshqalar tufayli saqlanib qolgan. Eng muhim asarlaridan biri ilk arab grammatikasini tizimlashtirgan lug‘ati hisoblanadi. U bosh harflar talaffuziga asoslanib tuzilgan. Ayn (a –) harfi b-n boshlangani u-n lug‘at “Kitob al-ayn” nomini olgan. Bizgacha uning muxtasar shakli Abubakr Zubaydiy tahririda yetib kelgan.

X.A.gacha arab tili va adabiyotida hech kim aruz bo‘yicha tadqiqot olib bormagan. U islomgacha va islomdan keyin yashab ijod etgan arab shoirlari she’rlarini 15 bahrga ajratib, bu bahrlarni 5 doiraga kiritgan. She’r vaznini o‘lchash uchun 8 asliy ruknni kashf etgan. She’r unsurla-

ri sifatida rukn, illat, zihof va boshqa istilohlarni qo‘llaganki, ular hozirgacha aruz ilmida faol qo‘llanadi. Keyin Hasan ibn Axfash mutadorik bahrini qo‘shib, ularning sonini 16 taga yetkazgan. Qarib, jadid va mushokil bahrlarini Ajam ahli ijod etib, ilova qilganlar. Shunday qilib, aruzdagi bahrlar soni 19 taga yetgan.

Ko‘plab Sharq xalqlari she’riyati vaznlari aruz asosida shakllangan va rivojlangan. Ba’zi zamonaviy aruzshunoslar X.A. yunon va sanskrit tillarini ham bilgan va aruz tizimini kashf etishda bu tillardagi she’r tuzilishlaridan foydalangan, degan qarashni ilgari suradilar. Arab yozuvidagi harakat belgilarini ham X.A. ixtiro etganligi aytiladi.

U yaratgan aruz nazariyasi keyinchalik bir qator olimlar tomonidan rivojlantirilgan va takomillashtirilgan. Ular orasida Shams Roziy, Nasir Tusiy, Abdurahmon Jomiy singari adiblar bor. N. ham bu ishga o‘z hissasini qo‘shgan va o‘zining “M.A.” asarini yaratgan. Mazkur risolada N. X.A. nomini hurmat b-n tilga oladi va uni “bu fanning (*aruzning.)* voze’yi” (asoschisi, yaratuvchisi), deb ataydi. Fanning nomi xususida so‘z ketganda N. bu borada bir necha xil fikrlar borligini aytadi va ulardan faqat bittasini, ya’ni X.A. ning fikrini to‘liq bayon qiladi: “Va ul budurkim, Xalil ibni Ahmad rahmatullohki, bu fanning voze’idur, chun arab ermish va oning yaqinida bir vodiy ermishki, oni “Aruz” derlar ermish va ul vodiyda a’rob uylarin tikib, jilva berib, bahog‘a kiyururlar ermish. Va uyni arab “bayt” der”. N. X.A. va boshqa aruzshunoslarning nomlari va asarlarini tilga olar ekan, ayni paytda o‘z risolasida ularning asarlarida ko‘rsatilmagan doira va vaznlar borligini ta’kidlaydi.

X.A. nomi N.ning “M.L.” asarida ham tilga olingan. Unda N. o‘zining Xoja Kalimuddin Salmonning masnu’ qasidasining matla’siga qilgan tatabbu’sini keltiradi va bu o‘rinda tarse’ san’atidan foydalanganini qayd etadi hamda tarse’ san’atini qo‘llagan holda ruboiy ham bitganini aytib, X.A. ruboiy qoidasini ishlab chiqqanidan beri bunday ruboiy yaratilmaganini ta’kidlaydi:

Ey ruyi tu kavkabi jahon oroye,
V-zy buyi tu ashxabi ravon osoye.
Be mo‘yi tu, yo Rab, chunon farsoye,
Gisuyi tu chun shabi fig‘on afzoye.

Yuqoridagi so‘zlar N. X.A.ni faqat aruz ilmining asoschisi emas, balki ruboiyning janr xususiyatlarini ham belgilab bergan olim deb hisoblashidan dalolat beradi.

“Kitob ul-riqo’” (“Ritmikaga oid kitob”), “Kitob ul-nag‘am” (“Ohanglar kitobi”)ni ham unga nisbat beradilarki, ularning ikkalasi ham musiqa masalalaridan bahs etadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Абдураззоқ Самарқандий. Матлаъи Саъдий ва Мажмаи баҳрайн. – Т., 1960; Бартольд. Сочинения. II (2). Работы по отдельным проблемам истории Средней Азии. – М., 1964.*

Q.E.

XALIL SULTON (786-1384 – 814-1411) – Amir Temurning nabirasi. Otasi – Mironshoh mirzo, onasi – Xonzoda. X.S. 1405–1409-yy.da Samarqand taxtida o‘tirgan. U tashqi ko‘rinishi ham, ichki dunyosi ham go‘zal, ko‘plab fazilatlarga ega shahzoda edi. O‘sha davr tarixchisi Xalil Sultonni shunday ta’riflagan: “Xalil Sulton Yusufdek chiroyli, Muhammaddek xushhulq, Xalildek muloyim, Ismoildek sadoqatli bo‘lib, malohat belgilarini o‘zida jam qilgan, turli-tuman latofatlarga ega kishi edi”. Lekin podshohlik u-n bunday fazilatlarning o‘zi yetarli emas, davlatni boshqarish qattiqqo‘llikni, ba’zan hatto shafqatsiz bo‘lishni talab qiladi. Bu xususiyatlar X.S.da yo‘q edi, shu sababli u uzoq vaqt hukmdorlik qila olmadi. O‘ziga qarshi dastlabki xurujlarni, shu jumladan, qarindoshi Sulton Husaynning isyoni (1405), amakivachchasi Pirmuhammad mirzo hujumini (1406) ochiq maydonda, halol jangda daf’ qilgan X.S. ko‘pni ko‘rgan, makkor Amir Xudoydod qarshisida ojiz bo‘lib qoldi. Mag‘lub bo‘lib, hokimiyatdan mahrum etilgan X.S.ni Shohrux Mirzo Ray

viloyatiga yuborgan va u o‘sha yerda vafot etgan (1411). X.S. taxtda o‘tirgan davrida shoirlarni o‘z saroyiga to‘plab, she’riyat majlislarini o‘tkazib turgan. Bu majlislarda Mavlono Sakkokiy, Xoja Ismat Buxoriy kabi mashhur shoirlar ishtirok etganlar. Ular X.S.ga atab qasidalar ham yozgan. X.S. iste’dodli shoir edi. Uning she’riy devon tuzgani ma’lum bo‘lsa-da, lekin u topilgan emas.

N. “M.N.”ning temuriy ijodkorlarga bag‘ishlangan yettinchi majlisida zikr etgan. Uning yozishicha, Xoja Ismat Buxoriy X.S.ning devoni ta’rifiga bag‘ishlab qasida bitgan. N.ning so‘zlariga qaraganda o‘sha vaqtda ham bu devonni topib bo‘lmagan. X.S. ijodidan faqat N. tazkirasida mavjud quyidagi birgina matla’ bizgacha yetib kelgan:

Ey, turki pari paykarimiz tarki jafo qil,
Komi dilimiz, la’li ravobaxsh ravo qil.

X.S. o‘ziga xos muhabbat tarixi b-n ham mashhur bo‘lgan. U bobosi Amir Temurning qarshiligiga qaramay, o‘zi sevgan qizga uylangan. Qizning ismi Shodmulk bo‘lib, manbalarda yozilishicha, u X.S.ga davlat ishlarida ta’sir o‘tkazgan. X.S. vafotidan so‘ng Shodmulk ham yashashni istamagan va ko‘ksiga xanjar sanchib o‘zini ishq yo‘lida fido qilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Ибн Арабшоҳ. Амир Темур тарихи. 2-жилд. – Т., 1992; Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. – Т., 1997; Абдураззоқ Самарқандий. Матлаъи. Саъдий ва Мажмаи баҳрайн. – Т., 1960; Бартольд. Сочинения. II (2). Работы по отдельным проблемам истории Средней Азии. – М., 1964.*

Q.E.

XALILOV Latif (1.04.1928–14.12.2004, Toshkent) – sharqshunos, adabiyotshunos. O‘rta Osiyo (hozirgi O‘zMU) davlat universitetining Sharq fakultetini tugatgan (1950). Mazkur universitet aspiranturasida tahsil olgan (1950–1953). Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti (hozirgi univesitet)da o‘qituvchi (1953–1991), kafedra mudiri (1991–2004) bo‘lib ishlagan.

1975-y.da “Alisher Navoiyning “Tarixi muluki Ajam” asarining tekstoligik tadqiqoti” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. X. N. asalarining XV jildligi va XX jildlik Mukammal asarlar to‘plami uchun “T.M.A.” va “T.A.H.” asarlarini nashrga tayyorlagan. Shuningdek, olim N.ning mazkur asarlari haqida maqolalar e’lon qilgan.

X.L.ning n.shunoslikka qo‘shgan asosiy hissasi yuqorida tilga olingan dissertatsiyasi hisoblanadi. Mazkur tadqiqotda “T.M.A.” u-n manba bo‘lib xizmat qilgan asarlar, muallif bu manbalardan foydalanishda qanday tamoyillarga asoslangani, “T.M.A.”da N.ning o‘z davrining ilg‘or g‘oyalarini aks ettirgani, Sharqda yaratilgan “Tarixi Tabariy”, “Tarixi Banokatiy”, “Shohnoma” singari mashhur asarlarga suyangani kabi masalalar ko‘rib chiqiladi, bu manbalarning qo‘lyozmalari haqida ma’lumotlar beriladi.

Dissertatsiyaning eng muhim qismi “Tarixi muluki Ajam”ning qo‘lyozma nusxalari tavsifi, uning XVIII–XIX asrlarda Yevropada nashr etilgan bosma nusxalari haqidagi bobdir. Muallif “Tarixi muluki Ajam”ning 19 ta qo‘lyozmasi borligini qayd etadi. Tanqidiy nashrini tayyorlash u-n ulardan beshtasi tanlab olingan bo‘lib, bittasi XV, ikkinchisi XVI, bittasi XVII va yana biri XIX asrga oid qo‘lyozmalardir. Tayanch nusxa sifatida 1526-y.da ko‘chirilgan va Parijda saqlanayotgan nusxa asos qilib olingan. Dissertatsiyaga tanqidiy matn ilova etilgan.

Ad.: *Навоийга армуғон(тўплам). – Т., 1968; Адабий мерос. – Т., 1968; Текстологическое исследование “Тарихи мулуки Аджам”. Алишера Навои (Автореферат кандидатской диссертации). – Т., 1975.*

H.H.

XALLUX – xalq nomi, etnonim. Tarixiy-adabiy manba va hujjatlarda ma’lum ma’noda ma’lumotlar uchraydi. N. X. nomini faqat “N.Sh.”

devonining “Erur barot ila bayram ul oyg‘a zulf ila rux, Xush ulki tun-kuni bo‘lg‘ay bu ikkidin farrux” matla’si b-n boshlanuvchi 111-g‘azalida qo‘llagan. N.ning g‘azal matnida X.ni qo‘llashdan maqsadi, birinchidan, g‘azalda berilgan rux – farrux – gulruh – posux – xallux – mux – kurux – cho‘x kabi qofiyalar tizimiga mos so‘z sifatida undan foydalangan bo‘lsa, ikkinchidan, g‘azalda esga olingan lo‘li, hind, turkman kabi etnonimlar qatorida sanab ko‘rsatgan:

Malohat o‘lsa olur jonni lo‘li-yu hindu,
Gar o‘lmasa qochurur mohi o‘qcha-vu xallux.

Ba’zi tadqiqotlarda “Qobusnoma”da X. va qarluq etnonimlari bir xalq nomi sifatida berilgan, degan fikr ham mavjud, ammo bu fikr o‘z isbotini topmagan.

Ad.: *Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2011.*

B.R.

XALOSIYA – Ixlosiya madrasasi qarshisida, Injil arig‘i yoqalab o‘tgan katta ko‘chaning janubiy tomoniga N. qurdirgan xonaqoh. X. ilmiy anjumanlar o‘tkaziladigan ilm-ma’rifat maskani bo‘lgan. X. haqida N. “V.” asarida shunday ma’lumot beradi: “Ixlosiya” madrasasi muqobalasidakim, mazkur bo‘lg‘on shori’ning janubiy haddi bo‘lg‘ay, xonaqohe bino qilildikim, ul Hazratning davlati davomi va saltanati saboti uchun quyiroq mashrut bo‘lg‘on dastur bila har kun fuqaro masoking‘a taom bergaylar va har yil ehtiyoj ahlig‘a kiygulik yetkurgaylar. Va bu xonaqoh to‘ridakim, ham janubiy tarafi bo‘lg‘ay – gumbaze bino qilildikim, chun bu mahalla ul Hazrat davlatidin ma’mur va eli dag‘i qalin va masrur bo‘lubturlar va bu jamoat bila Masjidi jome’ orasida juzviy masofate bor. Qishda ba’zi sovuq va balchig‘ uzri bila va yozda ba’zi gard va issig‘ bahonasi bila “Ey mo‘minlar, qachon juma kunidagi namozga chorlansa, darhol Allohning zikriga boringlar va oldi-sotdini tark qilinglar” (Juma surasi, 9-oyat) amridin g‘ofil va aning savobidin otil erdilar, muqarrar qildimkim, ul xonaqoh bila gunbazda jum’a namozi qilg‘aylar, shoyad ul jamoat har nav’ nomasmu’ uzr bila ul davlatdin mahrum va bu saodatdin bebahra qolmag‘aylar. Dag‘i xatib va muqri va imom va ulcha bu amrda zaruratdur, muayyan bo‘ldi. Va “Ixlosiya” madrasasi o‘trusida bu xonaqohg‘akim, imorati har nav’ riyo va g‘ashdin xoli erdi va xotirg‘a ko‘p taraddudin xalos berdi, “Xalosiya ot qo‘ydum”.

Xondamirning “Makorim ul-axloq”da yozishicha, u “g‘oyatda go‘zal va ko‘rkam qilib qurilgan”. Bu yerda amir Alouddin Asiliy, amir Sadruddin Ibrohim Mashhadiy, xoja Imoduddin Abdulaziz Abhariy o‘z davrining zabardast olimlari dars berganlar. Xatib, qori va imom tayinlangan. Xonaqoh to‘rida gumbaz bino qilinib, tevarak-atrofdagi aholining kelib juma namozini ado qilishlari u-n barcha sharoit muhayyo qilib berilgan. Har kuni mingdan ziyod beva-bechoralar va miskinlarga ovqat tarqatilgan. Har yili muhtojlarga 2000 ga yaqin po‘stin, to‘n, ko‘ylak, lozim, taqya va kaf ulashilgan. Ixlosiya madrasasi b-n Xalosiya xonaqohida yigirma yil ichida dunyoning har tarafidan bu ikki muborak joyga minglab talabalar kelib, oz fursatda turli ilm va fanlarni o‘rganishga muvaffaq bo‘lib, hurmat va ehtirom b-n o‘z vatanlariga qaytganlar. Ular ko‘plari Hirot shahrida mudarrislik mansabiga erishganlar.

Ad.: *Алишер Навоий. Вақфия. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985; Ғиёсиддин Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Т., 2015.*

E.O.

“XALQ ICHINDA BOR EDI BEG‘AYRATE...”

N.ning “L.T.” dostonidagi mazkur satrlar bilan boshlanadigan 47-bo‘limda kishilardagi yomon qusurlardan biri – g‘ayratsizlik qoralangan 7 baytli hikoyat. Simurg‘ni izlab yo‘lga chiqqan qushlarlardan biri – kabutar yo‘l mashaqqatlariga

chiday olmay, Hudhudga uzr aytadi. U o‘z uzrida barcha qushlar orasidan Alloh unga xalq qo‘lidan ovqat yeyishlikni qismat qilgani, odamlar kabutar u-n maskan va koshonalar qurib, oldiga suv va don keltirib qo‘yishlariga o‘rganib qolgani, Haq unga shuni ravo ko‘rgan ekan, bundan bo‘yin tovlash aqlsizlik, noshukrlik emasmi, deya bahona ko‘rsatadi. Hudhud esa kabutarni beg‘ayratlikda ayblab, Alloh unga koinotni uchib o‘tgudek qanot nasib etgan bo‘lsa-da, xaloyiq oldida zor-u intizor bo‘lib, ulardan osh-non kutish aslo to‘g‘ri emas, deydi va o‘z so‘zlariga ibratli tamsil keltiradi. Hikoyatda aytilishicha, bir ishyoqmas, tanbal kishi bo‘lib, u odamlardan musht, shapaloq yoki tepki yer, buning evaziga ulardan bir burda non yoki taom olib, kun ko‘rardi:

– *Xalq ichinda bor edi beg‘ayrate,*
Elga beg‘ayratlig‘idin hayrate.
Mushtu silli birla apponi yebon,
Eldin olib luqma-u oni yebon.

Kishilar uni quvib yuborsalar ham, hech qayerga ketmay, o‘zining yomon qiliqlarini tark etmasdi. Eng xunugi, u tortadigan jafolarga ma’lum narx to‘g‘rilab qo‘ygan edi. Qaysi bir kishi uni bir tepsa yoki ursa, u o‘sha kishidan buning haqini talab qilib olar, qo‘liga tushgan narsani, darhol og‘ziga solar edi. Bir kuni kimdir uning qo‘liga bir parcha non berib, shunday musht tushirdiki, u qayta o‘rnidan tura olmaydigan bo‘lib yer tishlab qoladi.

N. bu qismda tanballik, ishyoqmaslikning oqibatini sodda, ammo ta’sirchan badiiy ifoda etgan va insonlarni Rasulullоh (s.a.v.)ning: “Albatta, Alloh taolo bandalari ichida g‘ayratlisini yaxshi ko‘radi”, hadisiga muvofiq g‘ayrat-shijoatga undagan.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Бертельс Е.Э. Избранные труды. Суфизм и суфийская литература. – М., 1965.*

S.O‘.

XALQ OG‘ZAKI IJODIDA NAVOIY OBRAZI

Ulug‘ kishilar haqida rivoyat va hikoyat yaratish qadimdan odat bo‘lib kelgan. Turli zamonlarda yashagan davlat arboblari, sarkardalar, donishmandlar, olimlar, fozillar, shoirlar va san’atkorlar haqida xilma-xil rivoyat va hikoyatlar yuzaga kelgan. Rivoyat va hikoyatda ulug‘ kishilarning hayoti va faoliyati b-n bog‘liq bo‘lgan muhim voqea-hodisalar bayon etiladi, ularning shaxsiy sifatlari va fazilatlari ta’rif-tavsif qilinadi. Aniq voqelik zaminida vujudga kelgan rivoyat va hikoyatda tarixiy haqiqat tasavvur va ijodiy to‘qima b-n birgalikda yo‘g‘riladi. Binobarin, tarixda o‘tgan arboblar haqida fikr yuritganda, rivoyat va hikoyatlar (yoki boshqa janrdagi asarlar)ning o‘zi b-n cheklanib bo‘lmaydi, ularni tarixiy manbalarga, ilmiy dalillarga solishtirib o‘rganish asosidagina dadil so‘zlash, hukm chiqarish mumkin. Agar rivoyat va hikoyat tarixiy haqiqatga muvofiq bo‘lsa, tarixiy haqiqat mantig‘iga mos kelsa, qimmatli manbaga aylanadi, tarixning yozilmay qolgan sahifalarini to‘ldiradi.

N. haqida ham g‘oyatda ko‘p va xilma-xil rivoyat, hikoyat, latifa va afsonalar yaratilgan. Bular shoirning hayotlik chog‘ida vujudga kelgan, tarixiy, biografik-xotiraviy kitoblar va boshqa manbalardan o‘rin olgan. Real voqea, ulug‘ kishilarning faoliyati va shaxsiyati b-n bog‘liq bo‘lgan jihatlar mana shu rivoyat, hikoyat, latifa va afsonalarga zamin bo‘lib xizmat qilgan. Uning asarlari xalqning o‘lmas ma’naviy-madaniy xazinasiga aylandi. N. asarlari xalq b-n birga yashadi, ayrimlarining xalq variantlari vujudga keldi, xalq suyukli farzandi, betakror shoir va buyuk donishmandning badiiy obrazini yaratdi. Xalq ijodiyotidagi N.ning siymosi, shoirning badiiy obrazi tarixiy haqiqat b-n xalq fantaziyasining omuxta bo‘lishi negizida vujudga keldi.

N. obrazining vujudga kelishi hamda takomili zamini va bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. N. badiiy obrazining asosiy zamini va manbai tarixiy voqelik, uning hayoti va faoliyati, boy va xilma-xil adabiy hamda ilmiy merosidir. N.ning siymosi, uning “surati va siyrati” shu meros b-n birgalikda gavdalanadi.

2. N.ning hayoti va faoliyati, uning mijozi va xislatlari haqida Xondamir, Davlatshoh Samarqandiy, Zayniddin Vosifiy, Zahiriddin Bobur, Mirzo Haydar, Faxriddin Ali Safiy kabi XV–XVI asr mualliflarining qimmatli ma'lumotlari, fikr-mulohazalari bor. Bulardan Xondamir N. haqida maxsus asarlar ham ta'lif etgan. Mazkur mualliflarning asarlarida tarixiy ma'lumotlar b-n birgalikda N.ga bevosiga yoki bavosita taalluqli bo‘lgan hikoyat va rivoyatlar ham keltirilganki, ularda, ko‘pincha haqiqat b-n ijodiy to‘qima chatishib, mujassamlashib ketgan edi. N. o‘z davrining yirik siymosi sifatida tarixiy adabiyot olamiga o‘tib, uning badiiy obrazi vujudga kela boshlaydi. Bu, xususan, Zayniddin Vosifiyning bir qator hikoya-latifalariga xosdir. Xondamir, Davlatshoh Samarqandiy va boshqalar ko‘proq N.ga aloqador ma'lumotlarni bayon etib, u haqida o‘z fikr-mulohazalarini jiddiy bir uslubda bayon etgan bo‘lsalar, Vosifiy hazil-mutoyiba va hikoya-latifalarga ko‘proq o‘rin bergan.

3. Aftidan, XV asrning o‘zidayoq xalq og‘zaki ijodiyotida ham N. haqida turli hikoyat va rivoyatlar paydo bo‘la boshlagan, ular b-n kitobiy hikoya va latifalar bir-biriga juda monand bo‘lib, og‘zaki ijod sifatida paydo bo‘lgan ayrim hikoya yoki latifa kitobatga kirgani kabi ayrim kitobiy hikoya yoki latifalar og‘zaki ijod sifatida ham keng tarqalgan. M-n, Zayniddin Vosifiyning “Badoye' ul-vaqoye'”, shuningdek, Faxriddin Ali Safiyning “Latoif ut-tavoif”dagi ba'zi hikoyalar ayni chog‘da xalq og‘zaki ijodiyotining ham bisotidir, ularda kitobiylik b-n og‘zaki ijodning keskin chegarasi yo‘q.

N. siymosi aks ettirilgan asarlar ikkiga – kitobiy va xalq og‘zaki ijodi asarlariga ajraladi. Ammo ta'kidlab o‘tilganidek, kitobiy hikoya va latifalarning birmunchasida xalq og‘zaki ijodiga xos xususiyatlar ham mavjud bo‘lib, ularning misolida biz XV–XVI asr folklori namunalarini ham ko‘ramiz.

4. Adabiyotda Oybekning “Navoiy” romani (Oybek) Uyg‘un va Izzat Sultonning “Alisher Navoiy” dramasi, Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romani kabi asarlarning yozilishi bilan N.ning badiiy va tarixiy siymosi yanada to‘laqonli gavdalantirildi. Shu singari asarlarda biz N. hayotiga tegishli bo‘lgan tarixiylik b-n birga xalq og‘zaki ijodiga xos hikoyat va rivoyatlarni ko‘ramiz.

N.ning to‘laqonli siymosi aks etgan dastlabki asarlardan biri Xondamirning “Makorim ul-axloq” asaridir. N. b-n bevosita yoki bavosita aloqador bo‘lgan 17 hikoya, 10 latifa va mutoyiba keltiradi. Hikoyalar asarning 9 bob (maqsadiga va xotimasiga kiritilgan bo‘lsa) latifa va mutoyibalar uning “10-maqsad”ini tashkil etadi.

Ma'lumki, “Makorim ul-axloq”dagi hikoyalar N. hayoti va faoliyatiga doir fakt va voqealarning “hayotdan adabiyot olamiga o‘tishi” ibtidosi edi. Ular orqali N. shaxsi va siymosi yanada to‘laroq tasavvur etiladi.

10-maqsad “Latifalar va mutoyibalar” deb nomlangan. Muallif bobni hazil-mutoyiba va unga munosabat haqidagi mulohazalari b-n o‘rinli hazil-mutoyibaga ijobiy munosabatda bo‘lib, N.ning ham “munosib o‘rinlarda latifasimon so‘zlarni bayon ipiga” tortishini ta'kidlaydi. U N.ning faoliyati b-n bog‘liq jiddiy voqealarni “hikoya” nomi b-n boshqa boblarda bergan bo‘lsa, hazil-mutoyibani bir bobga birlashtiradi. Lekin “ulardan bir xillarini yozishga jur'at” qilib, jami o‘nta latifa va mutoyibani hikoya qiladi. Hikoyalarda N.ning faoliyatidan biron lavha bayon qilinsa, uning aql-irodasi, shafqat va marhamati, himmat va saxovati kabi fazilatlarni ko‘rsatuvchi voqealar naql etilsa, latifa va mutoyibalarda N.ning lutf qo‘llashi, zarofati va hozirjavobligi ifoda etiladi. Lutf qo‘llangan yoki nozik nuqta ishlatilgan kichik lavha (yoki voqea) latifa deb nomlangan. Shu jihatdan qaraganda, bu latifalar bizning odatdagi kichik hajmdagi hikoyalardan (afandilardan) farq qiladi.

Mutoyiba – hazil-mutoyibali kichik hikoyadir, Bobdagi 1, 2, 3, 5, 6, 7 va 8-hikoyalar latifa nomi, 4, 9 va 10-hikoyalarni esa mutoyiba nomi b-n nomlaydi. Latifalar N.ning favqulodda lutfi, latifasimon so‘zlari b-n badiiylashib, latifa tusini

olsa, mutoyiba kulgili situatsiya va N.ning hazil-mutoyibasi b-n "kulgili hikoya" – "mutoyiba" darajasiga ko‘tariladi. Latifa:

"Bir kuni ko‘ngilli Amir fasohat va zarofat bobida zamon shoirlarining peshqadami Xoja Osafiyga nasihat qilish u-n muborak tilini bayonga keltirib aytdi:

– Men senga hayron bo‘lamanki, o‘tkir zehning va baland tab’ing bo‘la turib, she’r aytish b-n kam shug‘ullanasan, hamma vaqtingni foydasiz ishlarga sarf qilasan.

– Hozirgi fursatda borgan sari ko‘proq she’r aytishga mashg‘ul bo‘layotirman. M-n, o‘tgan kecha 2 pullik sham yonib bitguncha 200 bayt aytdim, – dedi u.

Oliy Hazrat, ya’ni N.:

– Demak u tizmalarning yuz bayti bir pul ekan-da", – dedi.

Hikoyatga latifa tusini bergan narsa N.ning so‘zi, lutfidir. Shu asosiy komponentni mustasno qilsak, hikoya – latifa vujudga kelmaydi.

Zotan, "Makorim ul-axloq"dagi latifa va mutoyibalar N.ning o‘z lutfi, nuktasi, zarofati va mutoyibasi tufayli badiiy hikoya tusini olgan.

N.ga doir voqeiy hikoya, latifa va hazil-mutoyibalarni jam etgan yana bir muhim manba Vosifiyning "Badoye’ ul-vaqoye’" asar bo‘lib, uning XIII–XVII boblari bevosita shoir nomi, faoliyati, ijodiyoti, shaxsiy sifat va xislatlari b-n bog‘liqdir. Muallif Ulug‘bek va N. nomlarini bir sarlavha ostiga birlashtirgan XII bob sarlavhasi shunday nomlangan: "Guftor dar zikri ba’ze az fazoil va kamoloti sultoni Saidi Shahid Ulug‘bek Mirzo... va ba’ze az shamoyili axloqi amiri kabir Alisher..." ("Saidi shahid sulton Ulug‘bek Mirzo... fazilati va kamolotidan ba’zilari va qisman ulug‘ amir Alisher xulqining xush isi zikrida...".

Chunonchi, Sohib Doro tilidan bayon etilgan bir hikoyada N.ning hayoti, uning fazilatlari, shu b-n birga, N. b-n Husayn Boyqaroning o‘zaro munosabatlarini yoritishda favqulodda ahamiyatga ega.

"Husayn Boyqaro N.ning mulozimlari qatoriga bir voqeanavis – ayg‘oqchini ham qo‘shib qo‘ygan ekan. Buni hech kim bilmasa-da, N. payqagan. Kunlardan birida bir shaxs N. uyiga bir kalla qand, bir yoy va Qur’on olib keladi. N. undan maqsadini so‘rasa, u otasi yuqori lavozimdagi shaxs bo‘lgani, o‘zi ham mansab orzusida ekanini aytadi. N. menda xizmat qilsang, yiliga besh yuz tangadan oshiq maosh ololmaysan. Boshqa maslahat beray. Qur’onni sotsang, yuz tangaga olishadi, yoy bilan qandni yigirma tangaga sotasan, pichoq va sipohilar libosiga o‘xshash libos sotib olib, bashang kiyingan chiroyli yigitlarning yo‘lini to‘sib olib, "Sizni Xoja Muhammad Chinor chaqiryabdi" desang, u bechora yolinib-yolvorib, Xoja Muhammad Chinordan najot topmoq uchun borini senga hadya qiladi, shu yo‘l bilan boyib qolasan, deydi. U shaxs mulzam bo‘lib, "tuhfa"larini ko‘tarib, N. huzuridan chiqib ketadi.

Kechgan voqeani ayg‘oqchi Husayn Boyqaroga yetkazadi. Darg‘azab bo‘lgan shoh Hirot hokimi Muhammadvalibekni chaqirtirib, sening nomingdan Hirotni boshqarayotgan asranding Muhammad Chinor el-yurtga jabr-sitam qilib, kishilarning mol-mulki, qizi va o‘g‘liga ko‘z olaytirib qarayotgan ekan, agar tezda uni shahardan quvib chiqarmasang, uni ham, seni ham og‘ir jazo kutadi, deydi. Muhammadvalibek Muhammad Chinorni yuz kaltak b-n jazolab, shahardan haydab yuboradi".

Bu hikoyada biz N.ning adolatsizlik va insofsizlikka qarshi mislsiz nafrat-g‘azabini, uning qat’iyati va irodasini, hushyorligi va halolligini ravshan ko‘ramiz.

Sohib Doro tilidan bayon etilgan keyingi hikoyada N.ning Jahongirbek Barlosdan qasos olishi, Muhammad Badaxshiy tilidan aytilgan hikoyada haddan tashqari hovliqib ketgan, taxtiravonda ham nojo‘ya ishlar b-n shug‘ullangan Boyqaroning bakovuli Mirhoji Pirning N. tomonidan fosh qilinishi ifodalanadi. Bu hikoyalar N.ni adolatsiz, insofsiz va o‘z mansabini suiiste’mol qilayotgan kishilarga befarq qarab qololmaydigan qat’iyatli bir shaxs sifatida gavdalantiradi.

Asardagi N. b-n uning zamondoshi Binoiy fazilatlari va uning zarofatlariga bag‘ishlangan XVII bob muqaddima va sakkiz hikoyadan tashkil topgan. N. b-n Binoiy o‘rtasidagi munosabatning yomon bo‘lishi va keskinlashuvi bu ikki shaxsning mijozi-xarakteri b-n bog‘liq xususiy masaladir. Ma’lumki, N. tabiatan nozik fe’lli kishi bo‘lgan. Binoiy esa xiyla mag‘rur, ba’zan betakalluf; vaziyat bilan hisoblashib o‘tirmay; har qanday gap-so‘zni javobsiz qoldirmaydigan betga choparroq kishi bo‘lib, ba’zan chegaradan chiqqan, haddan oshgan.

N. va Mavlono Binoiy haqidagi hikoya-latifalar shunday xususiy munosabatlar zaminida tug‘ilgan, badiiylashtirilgan, ba’zan ortiq darajada bo‘rttirib tasvirlangan hikoya-latifalardir. Bular Vosifiyning “Badoye’ul-vaqoye’”, Boburning “Boburnoma” va Qazviniyning “Majolis un-nafois” tarjimasida bayon etilgan: “Mirning odatlari bor edikim, har hayitda yor-do‘stlar va suhbatdoshlar hamda mulozamatlarida bo‘lgan mahram va fozillarga munosib sarpo in’om qilar edilar. Odat bo‘yicha hayit kuni majlisda hozir bo‘lgan kishilar oldiga chopon qo‘ydilar, Mavlono Binoiy oldiga zarbof katta bo‘g‘cha olib kelib qo‘ydilar. Ochib qarasalar, unda eshakning to‘qimi ekan. Mavlono Binoiy o‘rnidan turdi va qiblaga yuz o‘girib sajda qildi, majlis ahli aytishdi: bu qanaqa sajda? Aytdi: bu shukr sajdasidir. Zeroki Mir hazratining mizoji Binoiyga nisbatan g‘oyat yomon degan gap-so‘z bor, hozir ma’lum bo‘ldikim, bu yolg‘on ekan va Mir bu kaminaga g‘oyatda lutfli va marhamatli ekanlar. Ko‘rmaysizmi, hammaga sharafli choponlar yuborgan bo‘lsalar, bu kaminaga o‘z xususiy choponlarini yuboribdilar”.

Agar bu hikoya darhaqiqat voqi’ bo‘lgan bo‘lsa, N. qaltis hazil qilgan, Binoiy esa javobda undan ham oshib tushgan.

“Badoye’ ul-vaqoye’”dagi N.ga taalluqli hikoyalar uning shaxsiy hayoti va xislatlarini, uning shoir, olim va davlat arbobi sifatida tutgan mavqeyini, ilm-fan, san’at-adabiyot ahllariga homiyligini, musohiblari doirasini, do‘stlari va muxoliflarini, Husayn Boyqaro, vazir Majdiddin, shoir Binoiy va boshqalar b-n bo‘lgan munosabati murakkabligini yoritishda muhim bir manba bo‘lib xizmat qiladi. Lekin bu manbaga tanqidiy munosabatda bo‘lish, mazkur manbani N.ga tegishli bo‘lgan ishonchli manbalar b-n qiyosiy o‘rganish lozim. Har qalay hikoyalar Navoiy siymosini ulug‘ va oddiy bir inson, pok, halol, irodali, qat’iyatli shaxs, nihoyatda iste’dodli shoir, olim, fozil, xalqparvar, mushfiq, saxovatli, marhamatli bir kishi, shu b-n birga, noziktabiat bir odam sifatida gavdalantiradi.

Yozma manbalardagi N.ga taalluqli hikoya va latifalar, bir tomondan, tarixiy voqelikning, ikkinchi tomondan, badiiy fantaziya va ijodiy to‘qimaning mahsulidir. Bu hikoya va latifalar mazmun jihatdan ham, badiiy uslub jihatdan ham folklor asarlariga yaqin va monanddir. Ularda xalq asarlarida bo‘lganidek, tasavvur va mubolag‘a, hazil va mutoyiba, askiya va chandish, tugun va yechimda favqulotdalik kabi xususiyatlar muhim o‘rin egallaydi. Folklorda N. obrazining yaratilishida mana shu hikoyalar ma’lum bir zamin bo‘lib xizmat ham qilgan.

Xalq afsonalarida Navoiy siymosi. Xalq ulug‘ shoir va mutafakkir, olim va davlat arbobi haqida yangi-yangi asarlar yaratib, ularni avlodlarga armug‘on etgan. Afsuski, N. haqida xalq yaratgan asarlarni yozib olish an’anasi bo‘lmagan. Muqaddima bobda ta’kidlab o‘tganimizdek, bu ish asrimizning 20-yy.da boshlandi. O‘tgan davr ichida o‘nlab xalq afsonalari yozib olib ommalashtirildi. A.A.Semyonov, P.Og‘oliyev, Berdi Kerboboyev, M.Afzalov ommalashtirgan afsonalar, nihoyat, N.ning 525 yillik yubileyiga chiroyli tuhfa bo‘lgan “Dono Alisher” to‘plami shoir haqida xalq yaratgan durdonalarni to‘plash va keng jamoatchilikka tortiq qilish borasida g‘oyatda muhim ahamiyatga egadir.

Shu b-n birga, A.A.Semyonov, A.K.Borovkov, B.Kerbobov, Y.E.Bertels, M.Afzalov, M. Murodov va boshqalarning shu afsonalar haqidagi fikr-mulohazalari ham qimmatlidir.

N. haqida shu kunga qadar to‘plangan va ommalashtirilgan folklor materialini til va hududi-

ga qarab shartli ravishda 3 ga bo‘lish mumkin. Bu fors-tojik tilidagi Buxoro afsonasi, “Mirali va Sulton Suyun” turkman sikli hamda o‘zbek tilidagi afsona va ertaklardir. Bu N.ning turkiy xalqlar va fors-tojik tilida gaplashuvchi xalqlar orasida shuhrat qozonganini ko‘rsatadi. N. haqidagi fors-tojik, turkman va o‘zbek tilidagi afsonalar o‘ziga xos xususiyatlarga ham, mushtarak jihatlarga ham egadir. Bosh mushtarak manbalarda biz aynan tarixiy faktlarni va N.ning aynan tarixiy qiyofasini emas, balki xalq tasavvuridagi siymosini, uning xalqning orzu-armonlari b-n uyg‘unlashib ketgan badiiy obrazini ko‘ramiz. Shu obrazni yaratishda xalq tarixiy zamindan, XV asr hayoti va aniq hodisalaridan yiroqlashadi, ayrim voqealarga yangicha mohiyat beradi, ba’zi tarixiy shaxslarni tasvirlash va baholashda erkin yo‘l tutadi. Ammo bularning hammasida N. obrazini yaratishga, uning siymosida oliyjanob insoniy sifat va fazilatlarni mujassamlashtirishga qaratilganini ko‘ramiz. Yana bir muhim mushtarak xususiyat N.ning haqgo‘y va erkin fikr bildirishidir. Uni ayrim afsonalarda shu darajada tavsiflashadiki, xuddi xalq qahramoni Afandiga (yoki Talhak hamda Mushfiqiyga) o‘xshab ketadi. Shuning u-n ham N. nomi b-n bog‘liq ayrim afsonalar xalq qahramonlari: Afandi va Mushfiqiylar nomi b-n ham aytiladi.

Afsonalar g‘oyaviy yo‘nalishi va N. obrazini talqin etishi jihatidangina emas, balki syujet va kompozitsiya hamda uslub jihatidan ham xiyla mushtarakliklarga egadir. Ba’zan bir syujet deyarli aynan takrorlanadi yoki bir-biriga o‘xshab ketadi. Tarixi va taqdiri, tili va udumi bir-biriga yaqin bo‘lgan xalqlarda bu holning sodir bo‘lishi taajjub emas. Turkman zaminida paydo bo‘lgan ayrim afsonalar o‘zbek xalqi orasida ham keng tarqalib, “o‘zbekchalashgan”i kabi, ayrim o‘zbek afsonalarining turkmanlar orasida tarqalib, “turkmanchalashgan” bo‘lishi mumkin. Xorazm vodiysi va Toshovuz mavzusi mana shunday aloqa va “almashuv”lar zamini bo‘lgan. O‘zbek afsonasi “Navoiy bilan Cho‘pon” va turkman afsonasi “Patыsha elerine”, “Tarixdagi to‘rt donishmand kishi” va “Yылdыz goren”, “Neme uchin”, “Mir Alisher bilan Sulton Husayn” va “Buda gecher”, “Pashshadan dod” va “Biz adam dalmi?” va boshqalar shuni ko‘rsatadi. Nihoyat, fors-tojik tilidagi N. va Guli haqidagi afsona b-n shu mavzu va syujetdagi turkman afsonasi “Etmak gerek” hamda o‘zbek afsonasi “Navoiy va uning sevgan qizi” o‘xshashligi ham buni tasdiqlaydi. Yana xarakterlisi shundaki, fors-tojik tilidagi Buxoro afsonasida N. b-n Husayn Boyqaroning Gulining o‘limi haqidagi mushoirasi fors-tojik tilida emas, balki o‘zbek tilidadir. Bu mazkur afsonaning dastlab turkiy tilda vujudga kelganini ko‘rsatadi.

Shubhasiz, bu mushtaraklik N. haqida yaratilgan afsonalarning milliy koloriti va o‘ziga xos xususiyatlarini inkor etmaydi. Afsonalarda voqea va hodisani o‘z tarixi b-n, turmushi b-n bog‘lab bayon etish, o‘z adabiy an’analarini tatbiq qilish ko‘zga ravshan tashlanadi. Afsonani yaratgan yoki hikoya qilib yurgan xalq geografik atamalarni ham o‘z o‘lkasidan oladi (M-n, turkman afsonalarida Mari shahri, Murg‘ob, Tejan daryolari, Dashkopri, “Pulxatыn” ko‘priklari kabi). “Miralini – Navoiyni, – deydi Berdi Kerboboyev, – turkman xalqi o‘zining klassigi kabi sevardi. Savod chiqarmoq uchun maktabda o‘qiladigan asosiy kitoblardan biri Navoiyning lirikasi – g‘azallari bo‘lardi. Savodli, tushunchali odamlar o‘z atroflariga tinglovchilarni to‘plab, uning g‘azallarini, “Xamsa”sini haftalab o‘qir edilar. N.ning g‘azallari kuylarda, qo‘shiqlarda yangrar edi. Shu qo‘shiqlar hozir ham baxshilar og‘zidan tushgan emas, baxshilar, odatda, uzoq kechaning kuy-qo‘shig‘ini Navoiydan boshlaydilar.”

N.ning tili turkman tiliga yaqin va qulay bo‘lib, arabcha, forscha aralashgan so‘zlarni mullalardan so‘ralmasa, uning asosini savodli odamlar, tinglovchilar tushunar edilar. Shoirning turkman tiliga qulayligi, turkman xalqining uni o‘z klassigi sifatida sevishi turkman xalqining Mirali b-n Sultonsuyun borasida had-hisobsiz hikoya, naql va “shorta soz”lar yaratmog‘iga sabab bo‘lgandir. Turkman olimi prof. B.Karriyev va M.Kosayevlar aytishicha, turkman xalqida N.

bilan bog‘liq maxsus maqom N. perza – N. kuyi bor. Garchi prof. A.K.Borovkovning Sultonsuyun turkmanlarning afsonaviy bobokaloni Soinxon yoki Soilxon, Mirali esa rivoyatlarning ma’lumoticha, Sulton Mahmud G‘aznaviy davrasi b-n bog‘liq shoir Mirali bo‘lishi mumkin, degan farazini yo tasdiq yoki rad etishga asosimiz bo‘lmasa ham, Mirali haqida turkman afsonalarining turkman zaminida juda qadimda paydo bo‘la boshlaganini ta’kidlash kerak. Turkman afsonalarida N. ba’zan hajvchi turkman shoiri Kaminaga monand qiyofada gavdalanadi.

Xalq afsonalarini, ularning mavzusi va g‘oyaviy mazmuni hamda obrazlar tizimiga qarab, shartli ravishda uchga: “Oliyjanob inson”, “Navoiy va Sulton Husayn Boyqaro, “Guli”ga bo‘lish mumkin.

Bir necha afsona N.ning oliyhimmatligi, saxovati, mushfiqligi va najotkorligiga bag‘ishlangan. Afsonalardagi faktlar tarixiy haqiqatga muvofiq kelmasa ham, lekin ularning ruhi tarixiy haqiqatga, N.ning sifat va fazilatlariga muvofiq keladi. “Pullar qayoqqa ketyapti?” (“Nira xarch edyesiu?”) afsonasida Sultonsuyunning Mirali uyiga mehmon bo‘lib borgani, qashshoq ro‘zg‘orini ko‘rib taajjublangani hikoya qilinadi. Ma’lum bo‘lishicha, Mirali maoshini deyarli butunlay beva-bechoralarga, kambag‘al va muhtojlarga bo‘lib berar ekan. Miralining taklifi b-n Sultonsuyun va ikkisi kiyim-bosh va otlarini almashtirib, mahallalarga borishadi, “podshoning otini minib, kiyimlarini kiyib olgan Miraliga hech kim e’tibor bermas, aksincha Miralining kiyim-boshlaridagi Sultonsuyunni olomon o‘rab olardi... Har tomondan: “Assalom, Mirali!”, “nuri diydamiz”, “xaloskorimiz, Xudo umringni uzoq qilsin” degan xitoblar eshitilardi... Oxiri Sultonsuyun bu beva-bechoralarga uy-joy qurib berishga, madad ko‘rsatishga va’da etadi.

Afsonaning ruhi, shubhasiz, juda ko‘p kishilarga moddiy va ma’naviy madad bergan, ochlik va yupunlikdan qutqarib qolgan oliyhimmat N.ning tarixiy siymosiga mos keladi. “Pulxotin” afsonasida esa Miralining Murg‘ob daryosi ustiga toshko‘prik qurgani hikoya qilinadi. Bu ham tarixiy haqiqat ruhiga muvofiq tushadi. “Navoiy bilan cho‘pon” afsonasida otasidan qolgan qo‘ylarning ko‘payib 700 ga yetgani, ikki yuzini cho‘ponga mehnat haqi uchun qoldirib, 500 qo‘yni bozorga haydashi, pulini podsho o‘lganda berasizlar, deb xaridorlarga tekin tarqatib yuborgani bayon etiladi. G‘azablangan podshoga N.: “... qo‘yni olib ketgan odamlar: “Ishqilib podshohimiz o‘lmasin. Podsho o‘lsa Navoiy pulini qistaydi”, deb sizni duo qilib yurishadi”, deb donolik va hozirjavoblik b-n omon qoladi. Bu hikoyada N.ning hikmat va saxovati, yomonlarga o‘lim tilashi (xalq qarg‘ishi), donoligi va hozirjavobligi o‘z ifodasini topgan.

“Ziyod Botir” xalq ertagida N. Ziyod Botir va uning yori Qamarxonni turli uqubat va tahlikalardan qutqarib, murod-maqsadiga yetkazgani hikoya qilinadi.

“Navoiy bilan yamoqchining o‘g‘li” afsonasi ham “Ziyod Botir” ertagiga mos bo‘lib, unda N. yamoqchining o‘g‘lini jazodan qutqarib qolib, sevganini – boyning qizini nikohlab olib beradi. “Yurt qorovuli”, “Tandir qurolmagan uy qurolarmidi” afsonalari mazkur afsonalarni to‘ldirib takomillashtiradi.

Afsonalardan bir nechtasi N.ning shoirligi, uning ijodiy ishlari b-n bog‘liq. Shulardan biri Sobir Abdulla yozib olgan “Bir matla’ tarixi” afsonasidir. N. Samarqandda tahsil ko‘rayotgan yillari bir gadodan “Ko‘kragimdur subhning pirohonidin chokroq, Kiprigim shabnam to‘kilgan sabzadan namnokroq” baytini tinglab, unga maftun bo‘lib qoladi, gadodan baytni sotib olmoqchi bo‘ladi (unda gado baytni aytmasligi shart), u ko‘nmaydi. Sulton Husayn taxtga chiqib, N.ni Hirotga chaqirtiradi, uni vazir lavozimiga tayinlaydi. Oradan o‘n yil o‘tib, N. Samarqandga keladi, qarib qolgan gado baytni sotishga rozi bo‘ladi, N. unga hovli-joy, tegirmon va bir eshak sotib olib beradi. Shundan keyin N. baytni mukammal g‘azal holiga keltiradi. Bu afsonada N.ning so‘z san’atiga muhabbati, xalq durdonalarini e’zozlashi ifodalangan. Yolg‘iz bir bayt g‘azal emas, u

ikki g‘arib misra, uni tugal she’r holiga keltirish kerak. N. shunday qiladi. Shu b-n birga N. oliyhimmat kishi sifatida ham tasvirlangan.

Shunday qilib, kitobiy hikoya va latifalarda N. haqida tarixiy fakt va voqealar asosida so‘z yuritilsa, afsonalarda xalq tasavvuridagi N. obrazi yaratilgan. Kitobiy hikoya va latifalarda mubolag‘a, badiiy fantaziya bor, ammo ko‘pincha, u ikkinchi elementdir. Shu b-n birga hikoya va latifalardagi mubolag‘a va badiiy tasavvur N. siymosini u yashagan tarixiy zamindan yiroqlashtirib yubormaydi. Xalq afsonalarida biz boshqa holatni, erkin ijodiy fantaziyani ko‘ramiz. Xalq o‘z afsonalarida tarixiy shaxs – N. obrazini yaratish vazifasini o‘z oldiga qo‘ymaydi. Uning maqsadi ulug‘ shoir va davlat arbobi nomi b-n umuman adolatsizlikka, jabr-sitamga qarshi murosasiz kurash olib borgan xalq farzandi, donishmand, hozirjavob shaxs obrazini yaratishdir. Xalq afsonalarida tarixiy hujjat emas, orzu, maqsad va uning qanoti bo‘lmish tasavvur yetakchidir. Shu b-n birga, xalq ijodiyotida Alisher (Mirali) obrazi shu darajada xalqchillashadiki, u “dehqon”, “mardikor” va boshqa toifadagi mehnatkash sifatida tasvirlanadi, o‘z yumori va hozirjavobligi b-n Afandi, Mushfiqiy yoki Kaminaga yaqin qiyofada tasvirlanadi. Shu xususiyatlarni ko‘zda tutib biz xalq asarlarini (“Ziyod Botir” ertagi bundan mustasno) “afsona” deb yuritishni, kitobiy asarlarni “hikoya” va agar hazil-mutoyiba unda yetakchi bo‘lsa “latifa” deb yuritmoqni lozim ko‘rdik. Avvalgi sahifalarda qayd qilinganidek, N. haqida xalq ijodi asarlarining mukammal va barqarorlashgan to‘plamini tuzish, asarlarni saralash, sun’iy o‘zgartirish va tahrirga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, mustaqillikdan avvalgi davrlarda yaratilgan N. haqidagi xalq og‘zaki ijodida davrning mafkuralari ham kirib qolgan ayrim latifa yo rivoyatlar ham yo‘q emas. Demakki, N. b-n bog‘liq kitobiy hikoya va latifalarni alohida jamlab, sharh va izohlari b-n keng kitobxonlar jamoatchiligiga taqdim etish lozim.

Ad.: *Маллаев Н. Алишер Навоий ва халқ ижодиёти. – Т., 1974; Алавия М. Навоий ғазалларида халқ таъбирлари. – Т., 1968, 8-сон; Афзалов М. Навоий ҳақида халқ афсоналари. – Т., 1948, 5-сон; Ҳакимов М. Навоий лирикаси ва халқ оғзаки ижоди. – Т., 1979; Сафаров О. Халқ ганжинасига меҳр. Навоийга армуғон. 5-китоб. – Т., 2006; Жўраев М., Нарзиқулова М. Миф, фольклор ва адабиёт. – Т., 2006; Авезов С. Алишер Навоий ижодида фольклор анъаналари. Buxdu.Uz: Том 1 №1(2020).*

S.R.



XAMMER-PURGSHTAL YOZEF FON (Joseph Freiherr von Hammer-Purgstall) (1774–1856) – avstriyalik sharqshunos olim, tarjimon, shoir, diplomat. Arab, fors, turk, jami o‘nta tilni bilgan. Avstriya FA asoschisi va birinchi prezidenti, Sankt-Peterburg va Fransiya akademiyalari xorijiy muxbir a’zosi. Asli gubernator oilasida tug‘ilgan Purgshtal Imperator va Qirollik Sharq tillari akademiyasida tahsil oladi. Keyinchalik 1807-y.ga qadar tarjimon bo‘lib ishlaydi. 1808-y. fransuz qo‘shinlari Venaga bostirib kirganda Sharq qo‘lyozmalarini saqlashga harakat qiladi. Bir muddat (1811) Parijda ishlab, u yerda Silvester de Sasi b-n uchrashadi. Italiyada Sharq manbalarini o‘rganadi, safarlari davomida kitoblar sotib oladi. Ko‘p yillik davlat xizmatidan so‘ng Avstriya FA ni tashkil etish u-n imperatordan ruxsat oladi va keyingi faoliyatini ilmga bag‘ishlaydi, bunga qadar ham u sharqshunos sifatida mashhurlikka erishgan edi. Arab adabiyoti, ruslarning kelib chiqishi, qipchoqlar va mo‘g‘ullar tarixi haqidagi asarlar, 10 tomlik “Usmonlilar imperiyasi tarixi” kitoblari muallifi. X.P.Y.F. Sharq shoirlari Nizomiy, Fuzuliy, Ibn al-Farid, Al-Mutanabbiy, Unsuriy, Boqiy, Ibn Vaxshiy kabi adiblarning asarlarini, xususan, Hofiz devonini nemis tiliga tarjima

qilgan (1812–13). Mazkur tarjimalar Gyotening "G‘arb va Sharq devoni" yaratilishiga ta’sir ko‘rsatgan. Fors adabiyotiga bag‘ishlangan kitobiga (1818) N. haqida maqolasini kiritadi. Kitobga Davlatshoh Samarqandiy va Som Mirzo asarlaridan shoirning tarjimayi holiga oid ma’lumotlar kiritilgan. Unda N.ning nasl-nasabi, asarlari, davlat arbobi sifatidagi faoliyati va bunyodkorlik ishlariga to‘xtaladi. N. ijodining G‘arbiy Yevropada o‘rganilishi bo‘yicha nomzodlik dissertatsiyasi yoqlagan U.Sotimov X.P.Y.F. Yevropada N.ni birinchi marta taqlidchi shoir deb atagan va bu ta’rif Yevropada N. ijodining o‘rganilishi va ommalashishiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan, deb yozgan edi. O‘sha davr olimlari asosan arab va forsiy tilli adabiyot b-n shug‘ullangani u-n X.P.Y.F. fors adiblari ta’sirida N.ning badiiy mahoratiga unchalik e’tibor bermagan ko‘rinadi. Biroq uning nemis tilida N. ijodi haqida ma’lumot bergani ham dastlabki ish sifatida muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda ko‘plab turkiy adabiyotga tegishli qo‘lyozmalar Venada saqlanadiki, albatta, bu X.P.Y.F.dek olimlar asos solgan sharqshunoslik maktabi samarasi deyish mumkin.

Ad.: *Сотимов У. Исследование жизни и творчества Алишера Навои в западноевропейском востоковедении. Автореферат дисс. по филол. – Москва, 1998.*

O.T.

"XAMSA" (ar. – besh, beshlik). Sharq mumtoz adabiyotida an’anaviy mavzu va shaklda yaratilgan besh mustaqil dostonni o‘z ichiga olgan, bir muallif qalamiga mansub she’riy asar, turkum. Xamsachilik an’anasini boshlab bergan buyuk ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy (1141–1209) hisoblanadi. U aslida "Maxzan ul-asror" ("Sirlar xazinasi"), "Xusrav va Shirin", "Layli va Majnun", "Haft paykar" ("Yetti go‘zal") va "Iskandarnoma" nomlari b-n 5 mustaqil doston yozgan. Lekin so‘z san’atining bu badiiy yuksak durdonalari avvaliga "Panj ganj" ("Besh xazina") nomi b-n mashhur bo‘lgan. Keyinchalik bu dostonlarning o‘ziga xos janriy xususiyatlari va Sharq adabiyotida yangi hodisa ekanligidan kelib chiqib, "X." adabiy atamasi b-n mumtoz adabiyotshunoslikda qonunlashtirganlar. Abdurahmon Jomiy ta’biri b-n aytganda, shoirning "X."da "qo‘lga kiritgan nazokati va latofati hech kimga muyassar bo‘lmagan, balki, umuman, odamzod qudratidan tashqari. N. esa "ul nazmlar agarchi zohir yuzidin afsonadur, ammo haqiqat yuzidin haqoyiq kashfi va maorif bayonig‘a bahonadur", deb ta’riflaydi.

Oradan yuz yil o‘tib, Nizomiy an’anasini asli Shahrisabzdagi lochin urug‘idan bo‘lgan, lekin Hindistonda yashab ijod qilgan mashhur fors-tojik shoiri Xusrav Dehlaviy davom ettiradi. U Nizomiy "Xamsa"sining birinchi dostoni "Maxzan ul-asror"ga javoban "Matla’ ul-anvor" ("Nurlarning chiqish o‘rni"), "Xusrav va Shirin"ga javoban "Shirin va Xusrav", "Layli va Majnun" o‘rniga "Majnun va Layli", "Iskandarnoma"ga javoban "Oyinayi Iskandariy", "Haft paykar" javobida "Hasht behisht" ("Sakkiz jannat") dostonlarini yaratadi. N. o‘z "X."sini yaratishda syujetda Nizomiyga ergashsa, badiiyatda Xusravdan ta’sirlanadi.

Shundan keyin Abdurahmon Jomiy "X."si mashhur (1414–1492). Ular: "Tuhfat ul-ahror" ("Oliyjanob kishilar tuhfasi"), "Sibhat ul-abror" ("Yaxshilar tasbehi"), "Yusuf va Zulayho", "Layli va Majnun", "Iskandar xiradnomasi". Uning yana "Silsilat uz-zahab" ("Oltin zanjirlar") va "Salomon va Absol" dostonlari bo‘lib, keyinchalik shoir "X."siga ularni ham qo‘shib, "Haft avrang" ("Yetti taxt". Forsiylar "Yetti og‘ayni" yulduzlar turkumini ham shunday deb ataydilar) deb nomladi. Abdibek Sheroziy, Amir Husayn G‘uriy, Ashraf, Xoju Kirmoniy, Abdullo Hotifiy kabi juda ko‘p shoirlar "X." yaratganlar, lekin forsiy adabiyotda uch – Nizomiy, Dehlaviy va Jomiy, turkiy adabiyotda esa N. dostonlari shuhrat qozondi.

N. bolaligidan buyuk xamsanavislar "panjasiga panja" urish, turkiyda "X." yaratib, bu tilning boyligini namoyish qilish orzusida yashar edi. 1483–1485-yy. mobaynida nihoyat bu niyat amalga oshadi – "H.A.", "F.Sh.", "L.M.", "S.S."

va “S.I.” kabi 5 dostonni o‘z ichiga olgan buyuk “X.”sini yozib tugatadi. Bu b-n u o‘zbek tilining ham dunyodagi eng boy tillardan biri qatorida turishini, o‘zbek adabiyotining ham jahon adabiyotining bir qismi hisoblanishini, o‘zining jahon san’atining zabardast namoyandalaridan biri ekanini amalda isbotladi.

“M.L.”da N.ning o‘zi ma’lumot berishicha, shoir “X.“si ko‘pchilik o‘ylaganidek boshdan-oyoq Nizomiy Ganjaviy “Panj ganj” (“Besh xazina”)iga javob bo‘lmay, balki ilk dostoni “Hayrat ul-abror” uning “Maxzan ul-asror” (“Sirlar xazinasi”)ga, “Farhod va Shirin” – Amir Xusrav Dehlaviyning “Xusrav va Shirin”iga, “Layli va Majnun” – Xoju Kirmoniyning “Gavharnoma”-siga, “Sab’ai sayyor” – Ashraf Marog‘iyning “Haft paykar” (“Yetti malak”)iga, “Saddi Iskandariy” – Abdurahmon Jomiyning “Xiradnomai Iskandariy” (“Iskandar pandnomasi”)siga tatabbu’dir.

26 ming bayt (52 ming misra)dan iborat bu doston XV asrning o‘ziga xos qomusi edi. Uning yaratilishi o‘sha davr kishilarini hayratga soladi. Abdurahmon Jomiy shogirdini eng nodir va eng yuksak so‘zlar b-n ulug‘laydi, Husayn Boyqaro esa do‘stini o‘zining sevimli oq otiga mindirib, o‘zi unga jilovdorlik qiladi.

N. ensiklopediyasida “Xamsa” dostonlari haqida alohida maqolalar yozilganini hisobga olib, mazkur maqola qisqa bitildi.

Ad.: *Алишер Навоий. Муҳокамат улуғатайн. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 3. – Душанбе, 2004; Сирожиддинов Ш., Юсупова Д., Давлатов О. Навоийшунослик. – Т., 2018;*

E.O.

“XAMSACHILIK AN’ANALARI” – o‘quv qo‘llanma nomi. Kitob Tohirov Sobirjon tomonidan filolog mutaxassislar u-n tayyorlangan. Qo‘llanmada Sharq adabiyotida xamsachilik an’anasiga asos bo‘lgan yirik epik dostonlarning yaratilish tarixi, Firdavsiy “Shohnoma”sining xamsanavislik tarixida tutgan o‘rni yoritiladi. Tadrijiy ravishda qiyosiy tahlil qilingan 18 ta mavzuda Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Xoju Kirmoniy, Ashrafali Marog‘iy, Abdurahmon Jomiy, N., Abdibek Sheroziy dostonlari an’ana va o‘ziga xoslik nuqtayi nazaridan tekshiriladi. Xamsanavislikning temuriylar davrida rivojlanishi Ashraf Marog‘iy va N., Jomiy dostonlari asosida yoritiladi. An’anada N. ning o‘ziga xosligi, turkum syujetlarning ishlanishi, “S.I.” kompozitsiyasining qiyosiy tahlili, N.ning badiiy mahorati orqali ochib beriladi. N. “X.”sining yaratilishi” mavzusida N. ning Nizomiy va Dehlaviy yo‘lidan borib, shakl jihatidan an’anaga tayangan bo‘lsa-da, o‘z dostonlarini shakllantirishda qiyin yo‘ldan borganini asoslaydi. Ijodiy izlanishlar mazmuni aks etgan g‘oyalarni dostonlardan olingan parchalar asosida dalillaydi. Keyingi davrdagi “X.” yozgan adiblarning dostonlari haqida ham ma’lumot berilgan. Kitobdagi tahlillar N. ijodining ayrichaligi hamda qiyosiy adabiyotshunoslik kesimida o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

Ad: *Alisher Navoiy. Xamsa. TAT. 10 jildlik, 6-8-jildlar. – T., 2011; Tohirov S. Xamsachilik an’analari. – Samarqand, 2020.*

Bad.M.

“XAMSA TALQINLARI” – adabiyotshunos va tarjimon To‘xtasin Jalolovning adabiyotshunoslik yo‘nalishidagi ilk tadqiqoti. U 1938-y. da yozilib, 1938–1941-yy. mobaynida “Guliston” va “Yosh kuch” jurnallarida bosilgan. Muqaddima va yetti qismdan iborat bo‘lib, dostonlar nomi b-n ataluvchi dastlabki besh qismda “X.” tarkibiga kiruvchi “H.A.”, “F.Sh.”, “L.M.”, “S.S.”, “S.I.” dostonlarining mavzu ko‘lami va obrazlar olami yoritiladi. 6-qism asarning til xususiyatlariga bag‘ishlangan bo‘lsa, 7-qismda ulug‘ shoirning badiiy mahorati masalalari o‘rganiladi.

Tadqiqot ilmiy-ommabop uslubda, ravon va hassos til b-n yozilgan. Bu uning ahamiyatini ta’minlagan.

Muqaddima tadqiqotga o‘ziga xos kirish bo‘lib, unda N. asarlarining xalqimiz orasida mashhurligi va qalbidan chuqur joy egallaganligi, dunyo miqyosida ham shuhrat qozonganligi xususida fikr yuritilib, Sharq va G‘arb olimlarining N. haqidagi ta’riflari keltiriladi. N. abadiyati va asarlarining shuhrati xususida muxtasar to‘xtalinib, ulug‘ shoirning Sharqda mashhur afsonalar bahonasida o‘z davri voqeligi manzaralarini chizgani aytiladi.

“H.A.”ga bag‘ishlangan ilk qismda uning “X.” dostonlari u-n o‘ziga xos debocha ekanligi, shoirning siyosiy-ijtimoiy, ilmiy-falsafiy, madaniy-adabiy qarashlarini o‘zida jamlaganligi aytilgan. Boshqa dostonlarda obrazli tafakkur vositasida ifodalangan g‘oyalarning muxtasar chizgilari bu dostonda berilganligini asoslashga harakat qilingan.

“F.Sh.” dostoniga birmuncha keng to‘xtalib, dostonning ijobiy qahramonlari N. zamonasi u-n ideal obrazlar ekanligi, “Navoiy bu ajoyib dostonini u zamonning shohlari va shahzodalari uchun bir dasturilamal sifatida taqdim qilganini, “Malika Mehinbonu bilan shahzoda Farhodning ish uslubini Husayn Boyqaro bilan uning o‘g‘li, ham valiahdi Badiuzzamon kabilarga namuna qilib bergan”ligiga e’tibor qaratadi. Dostonni davr b-n bog‘lab talqin etadi. “Farhod bu − butun insoniy fazilatlarni o‘zida aks ettirgan oliyjanob odamning obrazi”, deb uni keng tekshiradi. Ma’lumki, sobiq tuzum davridagi adabiyotshunoslik qolipiga ko‘ra, doston qahramonlari ijobiy va salbiy obrazlarga ajratilgan.

“L.M.”ni ham Majnun, Layli, Navfal, Laylining otasi, Ibn Salom kabi obrazlar asosida tadqiq etadi. Bu syujet asosida turkiy tilda birinchi bo‘lib N. doston yozgani, bu ikki oshiq-ma’shuqlar haqidagi xalq ichida keng tarqalgan “afsona anga libosi mavzun“ vazifasini bajarganligini ta’kidlaydi. Lekin u ham asossiz ravishda ijtimoiy mavqe jihatidan o‘zaro teng bo‘lgan Layli va Majnunning birini oliy, ikkinchisini quyi tabaqa vakili sifatida ko‘rsatadi.

“S.S.” tadqiqida, avvalo, uning go‘zal kompozitsiyasiga e’tibor qaratadi. Keyin Nizomiy va Amir Xusrav dostonlariga qiyoslab, ular o‘rtasidagi mushtarak va farqli jihatlardan ayrimlarini ko‘rsatib o‘tadi. Doston voqealari va unda ilgari surilgan g‘oyalarni tahlil qilar ekan, Bahromning fojiali taqdiri orqali shoir Husayn Boyqaroga ishora qiladi − uning ko‘zini ochmoqchi bo‘ladi, deydi. “Darhaqiqat, Navoiyning bu dohiyona ishorasi to‘g‘ri chiqdi. Oradan ozgina fursat o‘tmay Husayn Boyqaro davlati yemirildi. Temur sulolasiga abadiy xotima berildi”, − deb yozadi.

“S.I.” tahlilida “Navoiyning Iskandari Aleksandr Makedonskiyning tarixiy portreti emas, balki shu tarixiy shaxsning N.ning ijod korxonasida qayta ishlangan badiiy obrazidir” degan fikrni ilgari suradi. Iskandar b-n bog‘liq voqealarning tarixiy va badiiy talqinlarini qiyosan o‘rganadi.

“Xamsa”ning tili” deb nomlangan 6-qismda beshlikning til xususiyatlari tekshiriladi. “Navoiyning o‘zbek adabiy tili uchun boshlagan kurashida “Xamsa” g‘alabani ta’min etgan asosiy omil sanaladi”, − deb yozadi u... − “Xamsa”ning yaratilishi ham N. u-n, ham o‘zbek adabiy tili u-n katta imtihon edi. N. bu imtihondan a’lo baho b-n o‘tib, o‘ziga abadiy shuhrat, o‘zbek xalqiga va uning tiliga sharaf bag‘ishladi”. Shoirning asar tili va qahramonlar nutqini ishlash, xalqona so‘zlardan foydalanishdagi mahoratini misol asosida ko‘rsatib beradi.

“Xamsa”ning badiiy xususiyatlari” qismida esa shoirning tashbeh, takror, istiora, tajohuli orifona kabi badiiy san’atlardan foydalanish mahorati tadqiq qilinadi. Lekin ta’kidlash kerakki, olim “X.”ning badiiyatini zamonaviy adabiyotshunoslik terminlari asosida tekshiradi.

Ad.: *Alisher Navoiy. Xamsa. TAT. 10 jildlik, 6-8-jildlar. – T., 2011; Жалолов Т. “Хамса” талқинлари. – Т., 1960.*

E.O.

“XAMSA” HAYRATLARI – O‘zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyidning shu nomdagi she’rlar kitobi. Unda shoirning buyuk mutafakkir N.ning “X.” beshligiga kiruvchi birinchi doston – “H.A.”i ta’sirida yuzaga kelgan hayratlari badiiy ifoda etilgan. Mazkur asar ulug‘ bobomiz ijodini

o‘rganish, bugungi zamon o‘quvchisiga yaqindan tanishtirish yo‘lidagi urinishning, bu muhtasham she’riyatga mehr va ixlosning yangicha bir yo‘sinda ko‘rinishi b-n ham zukko o‘quvchini befarq qoldirmaydi. Ayniqsa, yosh kitobxonlarga ham N. she’riyatini bilish va o‘rganishlari u-n ham muallifning ushbu nazmiy tajribasi katta ahamiyatga ega.

Kitob S.S.ning “Tuganmas hayratlar” nomli so‘zboshisi b-n boshlangan. So‘ngra uning dostondan olgan taassurotlarini nazmiy ko‘rinishlari 50 dan ortiq katta-kichik she’rlar shaklida berilgan. Shoir kitobni ta’lif etar ekan, yuqorida ta’kidlaganimizdek, o‘ziga xos shaklni tanlagan, ya’ni N. dostonidagi aynan uni ilhomlantirgan baytlar she’r nomi va epigrafga chiqarilgan, so‘ngra ijodkorning bevosita ko‘ngil kechinmalari keltirilgan.

M-n, “H.A.”ning “Oltinchi maqolat”idan olingan mana bu bayti:

Kimki ulug‘roq anga xizmat kerak,
Ulki kichikroq anga shafqat kerak. –

S.S. tomonidan quyidagicha rivojlantirilgan:

Garchi ko‘p dunyoning yaxshi, yomoni,
Bir so‘z tiklab berar qayta dunyoni.

Kimki ulug‘roqdir – rahmat kerakdir,
Kimki kichikroqdir – rag‘bat kerakdir...

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Саййид С. “Хамса” ҳайратлари. – Т., 2016.*

S.O‘.

“XAMSA”DA LIRIK CHEKINISHLAR – muazzam “X.” o‘zining ibratli hikoyatlari, rangbarang obraz va timsollari, axloqiy, ta’limiy, ijtimoiy, falsafiy mazmuni b-n birga, badiiyatining go‘zal xususiyatlariga ko‘ra ham mumtoz adabiyotimizda beqiyos o‘rin tutadi. Undagi lirik chekinishlar “X.”ning poetik mukammalligini ta’min etuvchi yana bir o‘ziga xos jihatdir. N.gacha yaratilgan “X.”larda lirik chekinishlar faqatgina Iskandar haqidagi dostonlarda uchrasa, N. “X.”sida esa, deyarli, barcha dostonlarda mavjud. Bunday baytlar shoirning ichki, ruhiy olami, estetik fikr-tuyg‘ularini anglashga imkon berishi b-n ham ahamiyatlidir.

Jumladan, “H.A.”dagi hayratlar, boblar va maqolatlarning so‘nggi har ikki bayti (jami 25 bayt) soqiyga murojaat va may tavsifi b-n yakunlangan. Shuningdek, dostonning “Avvalgi hayrat”i soqiyga xitob b-n boshlanib, dastlabki 3 baytda may, jom va mastlik holati ta’riflangan. Ularda qo‘llangan “jomi sabuh”, “subh mayi” poetik birikmalari ilohiy ishqqa, Haqqa, kamolotga erishish vositalari sifatida talqin qilingan. Mast bo‘lmoqlik esa ilohiy zavq-u shavq, Haq jamoliga vosil bo‘lish, ruhiy huzur-halovat:

Subhdur, ey soqiy, etib mehr fosh,
Tut manga bir jom nechukkim quyosh....
Subh safoliq mayidin mast o‘lay,
Tong qushig‘a nolada hamdast o‘lay.

Tasavvuf istilohida tong ham g‘aybdan keladigan hamda qalbda namoyon bo‘ladigan ilohiy nur va sirlarning jilvalanishi, namoyon bo‘lishini bildiradi. Shuningdek, soqiyga murojaat bilan boshlangan lirik chekinishlarda asarda tasvirlanayotgan voqea-hodisalarning umumiy mazmuniga ham ishora qilinadi. M-n, dostonning o‘n to‘rtinchi maqolati oxiridagi Iskandar hikoyati quyidagicha xulosalangan:

Soqiy, erur komi dilim mastliq,
Moni’ erur lek tihidastliq.
Lutf ila ber ilgima may javhari,
May neki, oyinai Iskandariy.

Yoki o‘n to‘qqizinchi maqolat so‘ngida keltirilgan Xoja Muhammad Porso haqidagi hikoyat mana bu tarzda yakun topgan:

Soqiy, olib kel qadahi bodaye,
Shah tutsun, yo ani shahzodaye.

To bo‘layin mast saboh-u maso,
Necha riyo birla bo‘lay Porso.

Bunday baytlar shoirning “F.Sh.”, “L.M.”, “S.I.” dostonlarida ham ko‘plab uchraydi. “F.Sh.” dostonida har bir bob va xotima so‘nggidagi 2 bayt (jami 47 bayt) soqiyga xitob b-n tugallangan. “L.M.”ning ham X–XXIV boblarida turli obyektlarga (“Ey piri muallimu muaddab”, “Ey gulshani ishq bog‘boni”, “Ey mahmili ishq sorboni”, “Ey zoli zamona”, “Ey dashtni aylagan vatangoh”, “Ey silsilayi junun aro band”, “Ey qaydi zamona birla xursand”, “Ey maxfiy o‘lub, valek zohir, ko‘zga g‘oyib, ko‘ngulga hozir”, “Ey choranamo”, “Ey zoyiri ka’bayi saodat”, “Ey ishq elining siloh sho‘ri”, “Ey yori manozili nasimi”, “Ey navhagar”, “Ey tabib”, “Ey do‘st”), XXXVI bobda esa mug‘bachaga, XXXVII bobda bevosita soqiyga murojaat qilingan.

Lirik chekinishlarning keltirilishi va o‘ziga xos tuzilishiga ko‘ra, “S.I.” dostoni, ayniqsa, ajralib turadi. Nizomiy Ganjaviy ham “Iskandarnoma”ning “Sharafnoma” qismida soqiyga, “Iqbolnoma” qismida mutribga murojaat qilingan baytlarni keltirgan. Bunday ko‘rinishdagi baytlar Xusrav Dehlaviyning “Oyinayi Iskandariy” dostonida ham uchraydi. N. esa “boshqa dostonlarida o‘z kayfiyatini soqiyga murojaat yoki ayrim umumiy xulosalarni bildiruvchi misralar orqali bergan bo‘lsa, “S.I.”da aniq o‘rnatilgan tartib bo‘yicha beradi”. Ya’ni dostondagi har bir bobning xulosasi soqiy (ba’zan ayoqchi) va mug‘anniyga xitob b-n boshlanib, shoirning o‘ziga murojaati b-n yakunlangan.

“S.I.” boblarining xotimasida 150 ga yaqin lirik chekinishlar keltirilgan. Shundan 50 bayt soqiy (24 bayt) va ayoqchi (26 bayt)ga murojaat b-n boshlangan. Qolgan baytlarda mug‘anniyga va shoirning o‘ziga xitob qilingan.

Dostonning 7-bobini N. Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiylarga bag‘ishlagan. Unda shoir salaflarining Iskandar haqidagi dostonlariga ham yuksak baho bergan. Bu fikrlar 8-bobda ham davom ettirilgan. Shuningdek, unda hotif, ya’ni ichki bir tovush, ilohiy kuch “X.”ni yozishga ruhlantirgani, shoirni qo‘liga qalam olishga undagani aytiladi. Mazkur bobning so‘nggida keltirilgan soqiynoma va mug‘anniynoma xarakteridagi xulosaviy baytlar shoirning fikr-kechinmalarini yorqin ifoda etgani b-n ham xarakterlidir. Chunonchi,

Ketur soqiyo, ul kayoniy qadah,
Tag‘oreki, degaylar oni qadah.

Kayoniy – qadimgi Eronda hukmronlik qilgan to‘rt tabaqadan birining nomi. Baytda qo‘llangan Kayoniy qadah esa, ulug‘vorlik va qudrat ramzi, shuningdek, ilhom sarchashmasi, ma’naviy-ruhiy kamolot manbaidir. Bu orqali shoir xamsanavis ustozlarining ma’no xazinasiga, ya’ni ulkan va betakror ijodiga ham o‘ziga xos baho bergan. Shu sababdan bo‘lsa kerak, dostonda “kayoniy qadah” tog‘oraga qiyoslangan. Bu o‘rinda tog‘ora ham katta, benihoya, ulkan ma’nolarida ishlatilgan.

Asarning boshqa bir o‘rnida “jomi Kayoniy” – Kayoniy jomi timsoli shoirning olam va odam qismati, dunyoning o‘tkinchiligi, inson umrining qisqaligi haqidagi falsafiy mushohadalarini ifoda etadi:

Ayoqchi, mayi do‘stgoniy ketur,
To‘lo ayla jomi Kayoniy ketur.
Ki davronki, oyini o‘lmish jafo,
Ne Kayga, ne Dorog‘a aylar vafo.

Ko‘rinadiki, lirik chekinishlarning aksariyati soqiy (yoki ayoqchi) – may quyuvchiga murojaat b-n boshlanib, asar voqealariga ishora qiladi, shuningdek, shoirning maqsadini yuzaga chiqarish u-n ishlatiladi. Mazkur murojaatlar o‘quvchida estetik zavq uyg‘otish, uning diqqatini jamlash va ulug‘ mutafakkirning hayotiy qarashlarini badiiy lavhalar vositasida jonli tarzda yetkazib berishga xizmat qilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-жилдлар. – Т., 2011; Асадов М.*

Соқийнома: тарих ва поэтика. – Т., 2020; Қаюмов А. Асарлар. 3 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2008.

M.A.

“XAMSAT UL-MUTAHAYYIRIN” (“Besh hayrat”) – N.ning memuar-biografik asari. Shoir mazkur asarni tariqatda – pir-u maslahatgo‘y, adabiyotda – ustoz-u maslakdosh, hayotda – do‘st-u hamdard maqomidagi ulug‘ inson Abdurahmon Jomiyning xotirasini abadiylashtirish maqsadida yozgan (1494). U muqaddima, uch maqolat va xotimadan iborat. An’anaviy hamd, na’t va Jomiy ta’rifi b-n boshlanib, muqaddimada uning kelib chiqishi, ota-bobolari, beqiyos tug‘ma qobiliyati, boshlang‘ich ta’limni tug‘ilgan qishlog‘i Jomda olib, keyin tahsilini kamolotga yetkazish u-n Hirotga kelib, shu yerda yashab qolishi, barcha zohiriy va botiniy ilmlarda tengsizligi, xususan, she’rda, tasavvufda, tariqat odobida zamonasining yagonaligi, Sa’duddin Koshg‘ariy, Shayx Bahouddin Umar, Boyazid Puroniy, Muhammad Asad kabi orif-u komillar suhbatiga yetishgani, 1457–58-yy.gacha shaharda yashab, so‘ng shahar chekkasi – Xiyobon boshidagi Sa’duddin Koshg‘ariy mozorini makon tutgani, shoh-u a’yonlar, ulug‘lar-u fozillar hamisha uning ziyoratida bo‘lishlari haqida ma’lumot beradi.

Birinchi maqolat Jomiy va N. orasida kechgan o‘zaro o‘xshash holatlar, fikriy mushtarakliklar hamda ajoyib so‘z va voqealar tasviriga bag‘ishlangan. M-n, Abdullo Ansoriyning “Munojot” risolasini ikkalalari ham bir o‘tirishda o‘qiydilar, Amir Xusrav Dehlaviy baytidagi bir so‘z ustida fikrlari bir joydan chiqadi, Mavlono Sog‘ariyning bir baytiga bir xil munosabat bildiradilar, Anvariyning qasidanavislikdagi mahoratiga baholari o‘xshash bo‘ladi va h.k. Shuningdek, Jomiyning valoyati, zarofati, fazilatlari b-n bog‘liq ibratli va qiziqarli hikoyatlar keltiradi. Bu hikoyatlar Jomiyning tabiati, hozirjavobligi, bilimdonligini ko‘rsatibgina qolmay, N.ga munosabati va iltifotini ham namoyon etadi. Maqoladagi hikoyatlarning umumiy adadi 17 ta. Bu bob asarning eng muhim qismi bo‘lib, u to‘la ravishda Jomiy va N. o‘rtasidagi munosabatlarga bag‘ishlangan. Shuningdek, hikoyatlardan Jomiyning shoh-u shahzodalar, amir-u amaldorlar, ilm-u adab ahli b-n munosabatlari haqida ham keng ma’lumot olamiz. Binobarin, bu orqali davrning siyosiy-ijtimoiy, madaniy-adabiy manzaralari chiziladi.

Ikkinchi maqolatda Jomiy b-n N. orasidagi maktublar keltiriladi. Asar o‘zbek tilida yozilgan bo‘lsa ham, maktublar va ulardan o‘rin olgan she’rlar fors-tojik tilida. Chunki ikki buyuk zot o‘rtasidagi muloqot shu tilda kechgan. Bu b-n shoir o‘z ustoziga bo‘lgan hurmatini ham saqlagan. Bu maktublar ikki mangulikka daxldor insonning o‘zaro munosabatlarini oydinlashtirishdagina emas, balki ular ijodining ayrim qirralari, mahoratining ba’zi jihatlarini muayyanlashtirishda ham muhim. Jumladan, “Tuhfat ul-afkor” qasidasining yaratilishi va Jomiyning unga bergan bahosi b-n bog‘liq o‘rinlar muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Qasidadagi Najmiddin Kubro itiga oid bayt atrofida qo‘zg‘algan bahslar haqidagi hikoya ham qiziqarli. Ayni maqolada 13 lavhada mazkur yozishmalarning tarixi va mavzusi yoritib beriladi. Ularda nafaqat adabiy masalalar xususida so‘z boradi, shu b-n birga, o‘z davrining siyosiy-ijtimoiy voqealari ham u yoki bu jihatdan aks etadi.

Uchinchi maqolatda Jomiy asarlari haqida fikr yuritilib, ulardan 38 tasining nomi sanaladi va ularning aksariyati tasnifiga o‘zi sabab bo‘lganligi aytiladi. Uning tavsiyasi b-n Jomiy she’rlarini 3 devonga taqsimlagani, o‘z navbatida, Jomiy maslahati b-n o‘zi ham 4 devon tuzganini qayd etadi. Shundan keyin ketma-ket Jomiy asarlaridagi o‘zi haqidagi va o‘z asarlaridagi Jomiy haqidagi fikrlar va ta’riflar keltiriladi.

Xotimada N. o‘zining ustozi huzurida o‘qigan asarlari haqida to‘xtaladi. Jomiyning xavoriqi odat ishlari – avliyo sifatidagi karomatlaridan ba’zi misollar keltiradi. Uning so‘nggi kunlari va o‘limi b-n bog‘liq tafsilotlarni bayon qiladi. Asarga ustozining vafotiga yil to‘lishi mu-

nosabati b-n yozgan va Husayn Voiz Koshifiy ma’rakada o‘qib eshittirgan har biri 10 baytdan iborat 7 bandli (140 misra) dilso‘z marsiyasini ilova qiladi. Sadriddin Ayniy bu marsiyani ayni janrning eng jon o‘rtar namunasi bo‘libgina qolmay, unda Jomiyning butun ilmiy salohiyati va badiiy mahoratiga baho berilganligini ta’kidlagan edi.

“X.M.” mutolaasidan ma’lum bo‘ladiki, Jomiy va N. bir-biri b-n juda ko‘p tomonlama bog‘langan. Eronlik adabiyotshunos olim Ali Asg‘ar Hikmat bu do‘stlikning yuksak muhabbat darajasiga ko‘tarilganligini to‘g‘ri qayd etgan edi.

“X.M.” Jomiy va N. o‘rtasidagi buyuk do‘stlikka o‘qilgan madhiyadek jaranglaydi, ular orasidagi hamjihatlik va hamkorlikka qo‘yilgan badiiy obidaga o‘xshaydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамсат ул-мутаҳаййирин. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Ғаниева С. Навоий насри нафосати. – Т., 2000; Абдуқодиров А. Амир Алишер Навоий. – Хўжанд, 2013; Очилов Э. Жомий – Навоий идеалидаги комил инсон // Жомий ва ўзбек адабиёти. – Т., 2005; Олим Ф. “Хамсат ул-муҳаййирин”да тил ва тасвир // Ўзбек тили ва адабиёти, 2012, № 4.*

S.R., E.O.

XANTALA IBN SAFVON – rivoyatlarga ko‘ra, X.I.S. quduq egalari, ya’ni “As’hob ur-rass”ga payg‘ambar qilib yuborilgan. Bu qavm ham Bani Isroil avlodlaridan bo‘lgan, “Quduq egalari” qavmi haqida Qur’oni Karimning ikki surasidagi (Furqon, 38–39, Qof, 12–13) oyatlar nozil bo‘lgan. Alloh taolo Bani Isroilga Muso (a.s.)ni payg‘ambar qilib yuborgunicha va Musoga Tavrotni nozil qilgunicha Nuh, Od, Samud, Lut va Shuayb (a.s.)larning qavmlaridan tashqari yana bir necha qavm ommaviy jazoga uchragan va halok etilgan edi. Bu haqda Qur’oni Karimning “Qisas” (Qissalar) surasi, 43-oyatida eslab o‘tilgan. Hadislarda ham bunga ishoralar bor. Ibn Jarirning rivoyatiga qaraganda, Abu Sa’id al-Xudriy (r.a.) aytadi: “Alloh taolo Tavrot nozil bo‘lganidan keyin yer yuzida biror qavmni osmondan yo yerdan bo‘lgan ommaviy halokat bilan jazolamagan. Illo bir qishloq ahlini maymunga aylantirgan”. Shunday ommaviy qirg‘inga uchragan qavmlardan biri “As’hob ur-rass”, ya’ni quduq egalari qavmidir. Ular shayton alayhil–la’naning gapiga kirib, buzg‘unchilik va fohishalikning tuban odatlarini o‘zlariga kasb qilib olishgan edi.

X.I.S. haqida N. shunday yozadi: Xantala Qahr ibni Qahton o‘g‘li edi. Asarning Som ibn Nuh (a) bo‘limida keltirilganidek, Qahton Som ibn Nuh (a.s.) avlodidandir. Xantalani Tengri taolo Kalomullohda eslab o‘tilgan “As’hob ur-rass” qavmiga payg‘ambar qilib yuborgan. Ras Samud naslidin bo‘lgan bir podshoh bo‘lib, mag‘rib zaminida u yazdonparast edi. Umri oxirida saltanatining kengayib ketishi natijasida unda kalondimog‘lik va g‘urur paydo bo‘lgan va Tangrilik da’vo qilgan. Uning zamonida erkaklar turli hayvonlar b-n qo‘shilishni odat qilib olgan, xotinlar esa charm va teridin o‘zlariga olat yasab, farjlariga tiqib, lazzatlanishgan. Keyinchalik bu toifa xotinlar “ras” deyilgan. Shuningdek, “ras” qavmida bir-biriga surtinib taskin topadigan ayollar bo‘lganki, ularni “sa’tariy” deyishgan. X.I.S. bu qavmni barcha qabih ishlaridan qaytarib, Allohga ibodat qilishga da’vat qilgan. Ammo ular hadlaridan oshganidan keyin X.I.S. duo qiladi, ularning suvlari quriydi va buni X.I.S. ning duosidan deb bilib, uni o‘ldirish u-n lashkar tortib boradilar. X.I.S ham o‘z yaqinlarini yig‘ib, Tengri taolo hukmi bila Ras qavmiga qarshi jangga chiqadi. Ras qo‘shini X.I.S. tomonga bir o‘q otadi. Haq taolo qudratidin ul o‘q qaytib, otgan kishiga tegib, uni halok qiladi. Jangda Ras va qavmi mag‘lub bo‘lib, qochib bir mis va ruxdan yasalgan qo‘rg‘ong‘a kiradi, ammo foyda bermaydi. Hammasi halok bo‘ladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т.,*

2011; Ибн Касир. Қисас ул-анбиё. Қоҳира; Носируддин Бурҳониддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. 2 жилдлик, 1-жилд. – Т., 1990.

S.R.

XARAQONIY (taxallusi; to‘liq ismi: Shayx Abulhasan Ali ibn Ahmad Xaraqoniy) (X asrning 2-yarmi − Qumis – 1034) – tariqat piri, mutasavvif shoir. Xaraqon qasabasidagi kambag‘al oiladan bo‘lganligi tufayli cho‘ponlik va dehqonchilik b-n mashg‘ul bo‘lgan. O‘z davrining komil pirlaridan bo‘lgan Shayx Abulabbos Qassob qo‘lida tarbiyalangan. Tahsilni nihoyasiga yetkazib, irshod olganidan so‘ng bir umr tasavvuf b-n shug‘ullangan. O‘z ilmi, iqtidori, xulqi, ezgu ishlari b-n yigitligidayoq el og‘ziga tushgan X. ko‘plab muridlar tarbiyalab yetishtirgan. O‘z davrining buyuk insonlari, jumladan, oriflar sultoni Abusaid Abulxayr, shayx ur-rais Abu Ali ibn Sino, mashhur shoir va mutafakkir Nosir Xisrav, hatto Sulton Mahmud G‘aznaviylar uni ziyorat qilib, fayzli suhbatidan bahramand bo‘lishgan. Xususan, X. va Abusaid Abulxayr o‘zaro yaqin munosabatda bo‘lishgan. Abusaid uning xonaqohida olti oylab qolib ketgan. Shuning u-n ham u: “Men oddiy g‘isht edim, Xaraqonga borgach, gavhar bo‘lib qaytdim”, – deb lutf etgan ekan. Shayxulislom Abdulloh Ansoriy bir necha yil uning xizmatida bo‘lgan. Abdurahmon Jomiyning “Nafahot ul-uns”, N.ning “N.M.”, Farididdin Attorning “Tazkirat ul-avliyo” asarlarida va boshqa manbalarda X. haqida ma’lumotlar keltiriladi. Chunonchi, N. yozadi: “Oti Ali binni Ja’far. O‘z ro‘zgorining yagona va g‘avsi erdi. Vaqtning qiblasiki, zamonida rihlat anga erdi. Shayx Abulabbos Qassob aytib erdiki, “bizning bu bozorchamiz Xaraqoniyga o‘tadi”. Rihlat va ziyorat aning vafotidan so‘ngra Xaraqoniyga evruldi...”.

Barcha buyuk shaxslar kabi X.ning hayoti va faoliyati ham afsona-yu rivoyatlarga ko‘milgan. Chunonchi, uning Boyazid Bistomiy ruhidan tarbiya topganligi aytiladi. Xaraqondagi ulug‘lar mozorini ziyorat qilishga kelgan Boyazid Bistomiy: “Bu yerdan buyuk bir zotning hidi kelyapti, uning nomi Ali, kunyasi Abulhasan bo‘ladi”, – deb X.ning tug‘ilishini 170 yil burun bashorat qilgan ekan. O‘z navbatida, X. yigitligida 12 yil davomida Boyazidning mozorini ziyorat qilib, Allohdan uning ruhi poki orqali madad qilishini so‘ragan ekan.

Manbalarda X.ning “Risolayi al-xoif al-xoim min lazma alloim”, “Fovatih al-jamol a g‘ayri inho”, “Nur al-ulum” asarlari mavjudligi qayd etilgan. X.ning hayoti va faoliyatiga oid ma’lumotlar, hikmatli so‘zlari va she’rlaridan namunalar shayxning shogirdlari tomonidan tartib berilgan “Nur ul-ulum” (“Ilmlar nuri”) kitobida jamlangan. Tasavvufga oid tazkira va manoqiblarda undan parchalar keltirilgan. Muridlarning savollariga shayxning javoblari tarzida yaratilgan o‘n qismdan iborat ushbu kitobda tasavvuf ta’limotining ko‘plab nazariy va amaliy masalalari o‘z ifodasini topgan. X.ning har biri quyma hikmat kabi jaranglagan so‘zlari uning donishmand zot ekanligidan dalolat beradi. Asrlar davomida tasavvuf nazariyotchilari so‘fiylik ta’limotining u yoki bu masalalarini tushuntirishda bu javoblardan foydalanib kelganlar. Chunonchi, uning so‘fiyga bergan mana bu ta’rifi kitobdan kitobga ko‘chib yuradi: “So‘fiy bir kundirki, quyoshga ehtiyoji bo‘lmagay va bir tundirki, oyga ehtiyoji bo‘lmagay va bir yo‘qlikdirki, borliqqa ehtiyoji bo‘lmagay”. Shayx-shoirga nisbat beriladigan ruboiylar uning she’riy tab’i ham baland bo‘lganligidan dalolat beradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. – М., 1965; Ҳомидий Ҳ. Тасаввуф алломалари. – Т., 2004; Донишмандлар туҳфаси. Рубоийлар. – Т., 2009.*

Z.R.

XAROBOT (ar.) – vayrona, xaroba. Majoziy ma’nosi “mayxona”, “maykada”, rind-u shoirlar, xonanda va sozandalar yig‘ilib majlis quradigan maskan. X. tushunchasi Sharq adabiyotidagi rivoyatlarga ko‘ra, XII asrda Ganjadagi bir mahallaning nomi b-n bog‘liq. Hayot zavqidan bahra-

mand bo‘lishni istagan san’atkorlar, xonanda va raqqosalar hamda shoirlar bu mahallaga to‘planishar, she’riyat yuzasidan mushoiralar o‘tkazar, musiqa va qo‘shiq mavzularida mubohisalar olib borar ekanlar. Ozarbayjon shoirasi Mahsatiy xonim (XII) ruboiylaridan Xayyom va Hofiz Sheroziy g‘azallarida ham X. va X. ahli tez-tez qalamga olinadi.

X. “tasavvuf istilohida inson jismining xarob bo‘lishi − qanoat, faqr yo‘liga kirib, hayvoniy nafslar, keraksiz, yomon xulq-odatlardan qutulib, o‘zni xoksorlik, kamtarinlik rutbasiga solishdir”. X. rindlarining “nafslari tufroq bilan teng bo‘lsa-da, lekin himmatlari oldida baland osmon go‘yo pastdek. Zamon qayg‘ularidan ko‘ngli g‘amsiz, falak tashvishlaridan xotiri alamsiz. Na hayotdan, na o‘limdan qo‘rqadi; himmati oldida bor-yo‘q birday”. Shunga ko‘ra, N. she’riyatida X. poklik sharobi quyiladigan, ko‘ngil ma’naviy-ruhiy farah topadigan ilohiy maskan ma’nolarida ham talqin etilgan:

*Chun **xarobot** ichra mast o‘ldum ichib,*
ey mayfurush,
Rindlar birla solib g‘avg‘o meni rasvo qadah.

N. she’riyatida X. may, xursandchilik, dunyo tashvishlaridan forig‘ bo‘lish maskani sifatida ta’riflanadi:

Ey ko‘ngul, mast o‘lali azmi xarobot aylab,
Dayr ko‘yida gadoliqqa mubohot aylab.

X. ichra bir qadah sipqormoqni shoir Xizrning hayot chashmasidan afzal ko‘radi:

Gar xarobot ichra mumkindur sumurmak bir qadah,
Xizr agar o‘ltursa borman chashmayi hayvon sari.

Ad.: *Комилов Н. Тасаввуф. – Т., 2009; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Комилов Н. Тасаввуф. – Т., 2009; Муҳиддинов М. Сўфийлар ахлоқи // “Тафаккур”, 1997 йил, 4-сон; Раҳмонов В. Кўнгиллар ҳамрози (Сўзбоши) // Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. – Т., 1991.*

M.A.

XAROBOT AHLI – 1. Majoziy xarobotiy, xarob-turob bo‘lganlar. 2. Majoziy: mayxona ahli, may ichuvchilar. 2. Tasavvufda: so‘fiylar, rindlar. N. ijodida keng qo‘llangan timsol. X.A. ko‘ngli haqiqat qadahidan ilohiy ishq sharobini totgan Haq oshiqlaridir. M-n:

May ichmish xonaqoh shayxi,
xarobot ahli, aysh aylang –
Ki, chiqmish baxya urg‘an xirqasidin
mablag‘i kori.

Maz.: Xonaqoh shayxining ko‘nglida ham ilohiy ishq nuri porlab, u bundan mast-u sarxush bo‘libdi, ey xarobot ahli bo‘lgan rind-u so‘fiylar, bu xabardan xushhol bo‘lib, siz ham vajd-u holga tushing.

Ad.: *Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005; Комилов Н. Тасаввуф. – Т., 1996.*

M.A.

XAROBOTIY (ar.) – 1. Xaroba joyda istiqomat qiluvchilar. 2. Darveshlar, tarkidunyo qilganlar. 3. Majoziy: may ichuvchilar, mayxona ahli. 4. Tasavvufda: ilohiy ma’rifat sohibi bo‘lgan komil inson. N. ijodida faol istifoda etilgan timsol.

X.lar deb tasavvufda o‘z vujudini mutlaq vujud va Haq zotida foniy qilgan mutlaq vujudga aytadilar.

Navoiy xirqasin ta’n etma, ey rindi xarobotiy –
Ki, maxmur o‘lsa, uldur vajh
mayg‘a qilg‘oli marhun.

Maz.: Ey xarobot rindi, N. xirqasini (eski deb) ta’na qilmaki, mast bo‘lsa, uni mayga garov qilishi u-n shu bahona bo‘ladi.

X.lar N.ning nasriy asarlarida ham uchraydi: “Eshittiki, ul g‘azalni xarobotiylar chang u chag‘ona bila o‘qur erdilar” (“N.M.”).

Ad.: *Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. – Москва., 1965; Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005.*

M.A.

XARROT (Muhammad Yoqub. – Muhammad Yoqub Qurbonniyoz Xarrot o‘g‘li (1867–1939) – xivalik xattot, musiqashunos. X. Komil Xorazmiy (1825–1899) oldida xat va savodini chiqargandan keyin musiqiy ta’lim olishga kirishadi. X. Xorazm maqomlarini mukammal o‘rgangach, ularni o‘sha davrda yaratilgan Xorazm tanbur chizig‘i – milliy nota asosida ko‘chirib chiqadi. Tanbur chizig‘ini ko‘chirish u davrlarda eng qiyin vazifalardan biri hisoblanib, uni ko‘chirib chiqishga uncha-muncha xattot jur’at qilolmagan. X. kitobat qilgan ikki jildli milliy musiqiy nota kitoblari O‘zbekiston Milliy Davlat arxivida saqlanadi.

X. Xiva saroyining to‘rt nafar bosh xattotidan biri bo‘lgan. Xiva saroyida ko‘chirilgan qo‘lyozmalar ichida Xudoybergan Muhrkan (1822–1920) hamda Muhammad Sharif devon (vafoti 1900) qo‘lyozmalari eng ko‘pi bo‘lib, miqdori bo‘yicha ulardan keyingi o‘rinda X. dastxatidan chiqqan qo‘lyozmalar turadi. Sharq qo‘lyozmalari markazida X. kitobat qilgan 50 dan ortiq qo‘lyozmalar mavjud.

X. Xivadagi bolalar musiqa maktabida Xorazm maqomlari bo‘yicha o‘qituvchi, teatr sozandasi bo‘lib ham faoliyat olib borgan. U 1937–39-yy. qatag‘onida jismonan yo‘q qilinadi.

X. ShQMda saqlanadigan N. va 41 ta turkiy va forsiy shoirlar (inv.1133.) qo‘lyozma-musaddasot (Musaddaslar)ini Movarounnahr chiroyli nasta’liq xatida ko‘chirgan. Matn poygirli, har sahifasida to‘rt ustunda joylashgan va oltin suvli sariq chiziq ichiga olingan.

Ad.: *Матёқубов О., Болтаев Р., Аминов Ҳ. Ўзбек нотаси. – Т., 2009; ЎзМЭ. 9-жилд. – Т., 2005.*

Muh.A.

XARTMANN Martin (9.12.1851, Breslau – 5.12.1918, Berlin) – nemis sharqshunosi, islomshunos olim. Leypsig universitetida doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan (1875). Germaniyadagi Bayrut elchixonasida ishlagan (1876–1887), Berlinda Sharq tillari kafedrasida dars bergan (1887–1918). Faoliyati davomida islom dinini fan sifatida o‘rganishga intilgan, “Islom olami” (1912) jurnaliga asos solgan. X.M. turk tilidan so‘ng o‘n yil davomida o‘zbek tilini o‘rganib, Germaniyada o‘zbek adabiyotining o‘rganilishiga katta hissa qo‘shgan. U turkshunos olim sifatida Turkistondagi Mashrab qadamjolari bo‘ylab yetti oy safar qiladi, kuzatishlari natijasida Mashrab haqida tadqiqotlar yaratadi. Herman Vamberi tarjimalari b-n nemis kitobxoniga tanish N. ijodini tushunish u-n o‘zbek tilini o‘rganish zarur degan g‘oyani ilgari suradi. “Chig‘atoy tili” darsligini tuzib, N. g‘azallari va hikmatlarini nemis tiliga tarjima qiladi. X.M. ilmiy tadqiqotlari bo‘yicha dissertatsiya yoqlagan M.Todjixodjayev olim N.ning “Xarobot aro kirdim oshiftahol / May istarga ilgimda sing‘an safol” tarje’bandi ta’sirida “Xarobot ichra kirdim, aylab sado, / Sinuq kosa ilkimda, mayga gado” misralari b-n yakunlanuvchi soqiynoma yozganini aytadi. Xrestomatiyaning 6 qismida N.ning 3 ta g‘azali va shoirning turli g‘azallaridan saralab olingan 57 bayt, “Mahbub ulqulub”dan ikkita parcha eski o‘zbek yozuvida va nemischa tarjimasi b-n ilova qilinadi. G‘azallarni to‘g‘ri o‘qish u-n turkiy tilning leksik imkoniyatlari borasida ham tushuntirishlar berib boriladi. M.Todjixodjayev N.ning “Ne navo soz aylagay bulbul gulistondin judo / Aylamas to‘ti takallum, shakkaristondin judo” g‘azalining nemis tilidagi qayta tiklanishini tahlil qilar ekan, X.M.ning N. ruhiga singib ketgani va g‘azal mazmunini nemis tilida yaxshi ifodalay olganini yozadi. Umuman, X.M. turkiy adabiyotga muhabbati ortidan islom falsafasini, tasavvufni qunt b-n o‘rganadi, shuning u-n tarjimalarda sharqona ruhiyatni yaxshi ochib beradi, bu b-n nemis kitobxoniga N. asarlari mohiyati tugal yetib borishiga hissa qo‘shadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Гаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011;*

Hartmann M. Čaghataisches // Materialien zu einer Geschichte der Sprachen und Literaturen des vorderen Orients. Herausgeben von Martin Hartmann (Berlin). – Berlin., 1902; Тоджиходжаев М. Ўзбек адабиёти намуналари Мартин Хартманн таржимаси ва талқинида. – T., 2016.

O.T.

XATTOTLIK VA NAVOIY – XIV–XV asrlarda Sharqda keng ravnaq topgan qadim san'at turlaridan biri. Qo'lyozma asarlarni husnixat b-n ko'chirib, kitob shakliga keltiruvchi, husnixat san'ati qoidalarini puxta egallagan, bir qancha xat uslublarini biluvchi xattotlar kasbi. Xattotlikka ma'nodosh sifatida kotiblik, kitobatchilik so'zlari ham qo'llanilgan. Yozuv paydo bo'lgan ilk davrlarda asos solingan. Yozuvning shakllanib, taraqqiy eta borishi b-n xattotlik ham rivojlana borgan. Xattotlar qaysi yozuvdagi matnlarni kitobat qilish b-n shug'ullansalar, o'sha yozuvning harfiy belgilarini, bir-biriga bog'lanishlarini, mutanosibliklarini, o'lcham va bichimlarini chiroyli qilib yozishga harakat qilganlar.

Temuriylar davrida Movarounnahr va Xurosonda ilm-fanning ko'plab sohasi qatori xattotlik ham rivojlangan. Ilm-fan, adabiyot va san'atga doir barcha qo'lyozmalar mashhur xattotlar tomonidan ko'p nusxada ko'chirilgan. Temurning nabirasi Boysung'ur Mirzo (1397–1434) tomonidan Hirotda tashkil etilgan kutubxonada musavvir, naqqosh, sahhof, zarkor ustalar qatori kitobat san'ati vakillari ham faoliyat olib borgan.

Zamonasining eng mashhur xattoti Sulton Ali Mashhadiy (Nizomiddin) nasta'liq xatining mohir ustasi bo'lib, "Qiblai ul-kuttob" (Kotiblar qiblasi), "Zubdat ul-kuttob" (Kotiblar sarasi), "Sulton ul-xattoton" (Xattotlar sultoni), "Kotib us-sultoniy" (Saltanat kotibi) kabi unvonlarga sazovor bo'lgan. N. xattotlar xizmatini yuqori baholab, ularga alohida hurmat va e'tibor ko'rsatgan. "M.N."da Mavlono Sulton Ali Mashhadiy, Mavlono Soyilin, Kotibiy (Shamsiddin Muhammad Ibn Abdullo) kabi qator xattotlar nomini ehtirom b-n tilga olinadi. "M.Q."ning o'n yettinchi fasli kotiblar zikriga bag'ishlangan bo'lib, unda N. husnixat egalarini savodli va hushyor bo'lishga undagan o'rinlar mavjud: *"Yaxshi xat va nuqtadin safhag'a jamol, andoqki, yaxshi yuz safhasig'a xattu xol... Xushnavis hamkim, sahvi ko'p bo'lg'ay ilgi falaj illatig'a jo'b bo'lg'ay. Ulki, bejo nuqta bila "habib"-ni "habis" qilg'ay va "muhabbat"ni "mehnat" – aningdek habisi mehnatzadag'a yuz la'nat. Yamon xatg'a g'alati behisob, qarriyi masxara soqolig'a xizob. Ul xatni qirqib mabrazg'a tashlag'oli yaxshi va iyasini moliki do'zax jahannamg'a boshlag'oli"*.

Xondamir N. kutubxonasida ishlagan xushxat kotiblar: Mavlono Sultonali Mashhadiy, Xoja Hofiz Muhammad, Mavlono Sultonali Koiniy, Mavlono Zaynuddin Mahmud, Mavlono Sultonali Sabz Mashhadiy, Mavlono Sulton Muhammad, Mavlono Alouddin Muhammad, Mavlono Sulton Muhammad Xandon, Mavlono Hijroniylar haqida qimmatli ma'lumot bergan. Xususan, Mavlono Shayx Abdulla Kotib haqida 45 yil N. xizmatida bo'lgani, ta'liq, nasta'liq, xatlarini bag'oyat latofat b-n bitgani va ilgari o'tgan xattotlar san'atini ko'p yaxshi bilganini qayd etadi. Ayrim mashhur xattotlar o'zlarini kotib, – deb atab, ismlariga shu so'zni qo'shib imzo chekkanlar.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. TAT. 10 жилдлик, 9-жилд. – T., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. TAT. 10 жилдлик, 9-жилд. – T., 2011; Муродов А. Ўрта Осий хаттотлик санъати тарихидан. – T., 1971; Ҳакимов М. Шарқ манбашунослиги луғати. – T., 2013.*

E.Q.

XIVAQIY MULLO IBROHIM IBN MUHAMMAD YOQUB XOJA – XIX asrning ikkinchi yarmida Xorazmda yashagan mohir xattotlardan. "X."dagi "H.A." va "F.Sh." dostonlarini alohida-alohida 1310/1892–93-yy.da ko'chirgan. Bu qo'lyozmalar O'zR FAShI ShQM fondida inv. № 2376- va 1254-raqamlar ostida

saqlanmoqda. Qo‘lyozma maydaroq chiroyli nasta’liq xat va badiiy bezaklarga ega.

Ad.: *Ҳакимов М., Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. – Т., 1991; Собрание восточных рукописей академии наук Узбекистан. VII. – Т., 1964.*

Muh.A.

XIZR (a.s.) – Musulmon Sharqi yozma va og‘zaki adabiyotida keng tarqalgan timsollardan biri. X. (a.s.)ning nomi Qur’oni Karimda uchramasa ham, “Kahf” surasida Muso (a.s.) b-n muloqot qilgan “solih” odamning X. (a.s.) ekanligi ko‘p tafsirlarda qayd etilgan. Firdavsiyning “Shohnoma” va Nizomiyning “Iskandarnoma” kabi asarlarida X., Iskandar b-n hayot suvini izlab zulmat diyoriga safar qilishadi. Ular ayri-ayri yo‘llardan izlashga tushishadi. Bu suv bulog‘ini topib ichish Iskandarga emas, X. (a.s.)ga nasib etadi va u qiyomatga qadar hayot bo‘lish baxtiga erishadi. Shuning u-n ham “Xizr umri” degan ibora abadiylik, barhayotlik ramziga aylanib ketgan. Ko‘pgina musulmon bo‘lmagan olimlar X. (a.s.)ning turli mifologik tasavvurlar asosida paydo bo‘lgan mifik obrazlardan biri, yaxshilik va ezgulik homiysi sifatida talqin qilganlar. Ammo X. (a.s.) to‘laqonli va keng qamrovli obraz sifatida islomiy adabiyotlarda aks etgan. Uning ismi ba’zi manbalarda Biqyo bin Milkondir deyiladi. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida X. “odamlarga yaxshilik qiluvchi ezgu homiy, cho‘lda yoki dengizda adashganlarga yo‘l ko‘rsatuvchi g‘aroyib inson, ekinga mo‘l hosil baxsh etuvchi mo‘jizakor qudrat sohibi, baxt va davlat ato qiladigan ezgu pir, epik qahramonlarning doimiy hamrohi sifatida tasvirlanadi” (F.Nurmanov).

Abu Abdulloh Sulaymon Jazuliyning “Daloyil ul-xayrot” kitobida: X.ning kunyasi Abulabbos, Xizr uning laqabidir. “Qurib qolgan o‘t-o‘lan ustiga o‘tirganda yashil maysaga aylangani uchun X. (yashil, yashillik) deb atalgan. “Qisasi Rabg‘uziy”da yozilishicha ham: “Xizr ma’nisi yashil bo‘lur. Qayu tosh uza Xizr (a.s.) o‘ltursa, ul tosh yasharur erdi. Aning uchun Xizr ataldi. Aymishlar: qay-u yerda o‘ltursa, ul yer ko‘karar erdi... Mangu suyin ichib, tirik qoldi...”.

Rivoyatga ko‘ra, X. (a.s.)ning to‘liq nasabi Balyo (yoki Ilyo) ibn Milkon ibn Folig‘, ibn Obir, ibn Solih, ibn Arfaxshad, ibn Som, ibn Nuh (a.s.) dir. Ibn Jarir at-Tabariyning yozishicha, Xizr Afridun ibn Isfiy zamonida yashagan olimlardan bo‘lib, Muso (a.s.) o‘z davrida u b-n uchrashgan. Ba’zilar Ibrohim (a.s.) davrida yashagan deyishsa, ayrimlar undan ozroq yo ko‘proq vaqtdan keyin deyishadi. Uning payg‘ambar yo valiy bo‘lgani haqida ham ulamolar o‘rtasida ixtilof bor. So‘fiy ulamolarining qarashlariga ko‘ra, u “obi hayot” suvini ichgani u-n qiyomatga qadar tirikdir, bizning oramizda yuradi-yu, ammo ko‘zimizdan pinhondir. Va ba’zi solihlar u bilan muloqot qiladi. Bu zot haqida Imom Buxoriy rivoyatlarida Abu Hurayra (r.a.) aytadilar: Payg‘ambarimiz (s.a.v.) dedilar: “Xizrning shu nom bilan atalishiga sabab u oppoq (sho‘r) yerga o‘tirsa ham, o‘rnidan turishi bilan u yerdan yashil maysalar unib chiqardi”.

Qur’oni Karimning “Kahf” surasi, 65-oyatida X. haqida shunday deyiladi: “Bas, bandalarimizdan bir bandani topdilarki, Biz unga O‘z dargohimizdan rahmat (ya’ni payg‘ambarlik) ato etgan va O‘z huzurimizdan ilm bergan edik”. Jomiyning “Nafahot ul-uns”ini sharhlagan Lomiiy Chalabiy asar muqaddimasida yuqoridagi oyatdan kelib chiqib, X.ga: bandalik sifati, Allohning rahmati va laduniy ilm xos ekanligini alohida ta’kidlaydi. N.ning “F.Sh.”, “S.I.” dostonlarida X. (a.s.)ning homiyligi, donoligi va Iskandar b-n birga safar qilgani tasvirlansa, “N.M.” tazkirasida bir qator avliyolarning X. (a.s.) b-n suhbat qurganlarini yozilgan. Tariqatda X. (a.s.) b-n uchrashgan avliyoning darajasi yuksak hisoblangan. M-n: “F.Sh.” dostonida Ajdaho va Ahramanni yengib, temir paykarni mahv etish sari borayotgan Farhodga X. (a.s.) yo‘liqib: “Kelibturmen sanga bo‘lmoqqa hodiy”, – deydi, va bu yo‘lda unga rahnamolik qiladi. N.Komilovning yozishicha, “aslida u ulug‘ maqsad sari tavajjuh etgan Farhodga G‘aybdan kelgan madaddir”.

N. “T.A.H.” asarida ma’lumot berishicha, Tangri taolo Xizrga ilmi ladunni ato etgan bo‘lib, hayvon suvi deganda shu narsaga ishora qilinadi. Laduniy ilmga sa’y-harakat b-n yetib bo‘lmaydi, u Alloh tomonidan o‘zi xohlagan bandasiga beriluvchi ilohiy ilmdir. Ma’lum bo‘ladiki, X.ning abadiy hayot sohibi ekanligi ham aslida uning ilohiy ilmlar sohibi bo‘lganligi b-n izohlanadi.

Xizr umrin tilarlar ahli xirad,
Yor vaslidurur, hayoti abad.

Shoir aytmoqchiki, aql sohiblari X. umrini orzu qiladilar. Bu b-n faqat uzun umrgagina ega bo‘lish mumkin. Chinakam abadiy hayot esa yor vasliga yetib, u b-n birga bo‘lishdadir.

Manbalarda X. (a.s.)ning Ilyos (a.s.) b-n qarindoshligi, ularning qutblar b-n muloqot qilishi, har besh yuz yilda umri, kuch va quvvatini yangilashi, uylanib bola-chaqa qilishi, lekin hech kim uni bilmasligi, hatto hazrat Payg‘ambarimiz b-n uchrashgani va hadislar rivoyat qilgani, ba’zilarga muhim duolarning o‘rgatgani aytiladi.

N.ning yozishicha, Iskandar Zulqarnayn tiriklik suvini izlab zulmatga kirganida X. (a.s.) uni boshlab kirgan edi. Shuningdek, Ilyos (a.s.) ham ular bilan birga edi. Ammo tiriklik suvini Alloh taolo X. (a.s.) va Ilyos (a.s.)ga nasib qilgan:

Xizrg‘a nasib o‘lsa hayvon ziloli,
Skandarga ichmakka yo‘q ehtimoli.

Ayrim manbalarda, “tiriklik suvi”dan murod ilmi laduniy edi deyiladi. Xoja Muhammad Porso (q.s.) asarida bitilishicha, u Sabzavorning Kavk shahridan bo‘lib, islom dinining imom Shofe’iy mazhabidadir.

Rivoyatlarga ko‘ra, bir kuni Malak ul-mavt (o‘lim farishtasi) kelib, jonini olmoqchi bo‘ladi. X. (a.s.) qattiq oh tortib yig‘laydi. Hazrat Azroil: “Joningizni olayotganim uchun yig‘layapsizmi?” deb so‘radi. “Yo‘q, Alloh taologa ibodat qilishdan qolyapman, shuning uchun yig‘layapman”, deydi. Shu payt xitob bo‘ladiki: “Niyating shu bo‘lsa, qiyomatgacha umr berdim”. Shu bois qiyomatga qadar u zot tirikdir.

N. devonlarida talmeh sifatida eng ko‘p uchraydigan obrazlardan biri X. (a.s.) va u b-n bog‘liq rivoyatlardir. “Xizr suvi”, “Xizr chashmasi”, Xizri rah” va “Xizr umri” kabi iboralar N. g‘azallarida bot-bot tilga olinadi va yangi-yangi ma’nolar kashf qilinadi. Shuningdek, ayrim so‘fiyona istilohlarda, X. (a.s.)dan maqsad bast – kenglikka, Ilyosdan maqsad qabz – torlikka ishoradir. X. (a.s.) so‘zi N. she’riyatida ulug‘ shoirning turlituman badiiy maqsadlarini yuzaga chiqarish u-n qo‘llangan:

Xat sanga Xizr-u labing – chashmayi Xizr,
Nutqung – ul chashma aro obi hayot.

N. ijodida “Xizr suvi” abadiylik, abadiy so‘z, buyuk saodat, yorning latif so‘zi ma’nolarini ham bildiradi. Shuningdek, yorning xati X.ga, og‘zi X. erishgan tiriklik suviga tashbeh qilinib, solik tarafidan qo‘lga kiritilgan maqsad va ishqiy sirlarga dalolat qiladi:

Jomi Jam birla Xizr suyi nasibimdur mudom,
Soqiyo, to tarki joh aylab gado bo‘ldum sanga.

Shoir demoqchiki, ey soqiy, vaqtiki, amal va martabalardan kechib sening gadoying bo‘ldim, (gado bo‘lib sendan may tiladim) nasibam doimo Jomi Jam va X. suyi (obi hayot) bo‘ldi. Baytda soqiy – muridiga ilohiy fayz ulashadigan ruhoniy pir, murshid, Jomi Jam va X. suyi esa istiora yo‘li b-n qadah va may (ilohiy fayz va ishq) ma’nosida qo‘llangan. Yuqoridagi baytda X. suvi may o‘rnida qo‘llanib ardoqlangan bo‘lsa, boshqa bir baytda habib (do‘st, sevikli) ishqiga qaraganda “hayot suvi”ning qadrsiz ekani ochiq aytiladi. X. habib ishqi tarafga emas, “hayot suvi” sari qadam tashlagani uchun vaqtni behuda o‘tkazgan:

Habib ishqi aro buki o‘lmading, ey Xizr,
Ichib hayot suyi, zoye’ aylading avqot.

Quyidagi baytda jonon (yor) sari qo‘yilgan bir qadam yuzta Xizr umridan afzal ekani aytilgan:

Yuz Xizr umridin ortug‘roqdurur ming jon berib
Bir qadam qo‘ymoq, muyassar gar bo‘lur,
jonon sari.

N. she’riyatida X. suyi, X.i roh, obi hayvon (hayvon suyi) kabi istioraviy atamalar ham turli ma’nolarda keladi.

Labing xat zohir etti, Xizr umri bersalar o‘lgum,
Xususankim, Xizrg‘a hamdam
o‘lg‘ay obi hayvoning.
Qo‘lda, ey Xizri rahim, xasta Navoiy qo‘lini,
Kim bu yo‘l po‘yasidin bag‘ri aning toldi yana.

Jong‘a zulfung tobidin ul la’li xandondur g‘araz,
Xizrg‘a zulmat tilardin obi hayvondur g‘araz.

Yuz Xizr umridin ortug‘roqdurur ming jon berib
Bir qadam qo‘ymoq, muyassar gar bo‘lur,
jonon sari.

Ad.: *Алишер Навоий. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Ислом. Энциклопедия. – Т., 2004; Носируддин Бурҳониддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. – Т., 1991; Пайғамбарлар тарихи (Исломият тарихи). – Т., 2014; Абу Абдураҳмон Сулаймон Жазулий. Далойил ул-хайрот. Бомбей. 1310 (ҳ.қ.) й. Комилов Н. Тасаввуф. – Т., 1996; Нурманов Ф.И. Хизр образининг генезиси ва унинг ўзбек фольклоридаги талқини. НДА. – Т., 2007.*

S.R.

“XIZR CHASHMASI” – Najmiddin Komilovning N. asarlarining tasavvufiy asoslari va forsiy merosi – “Sittayi zaruriya” qasidalari tadqiqini o‘z ichiga olgan maqolalaridan iborat kitobi (2005). Olimning o‘z davrida voqea bo‘lgan “Tasavvuf va badiiy ijod”, “Timsollar timsoli”, “Ishq otashining samandari”, “Suqrot – komil inson timsoli” kabi maqolalari N. she’r va dostonlarining irfoniy qatlamlarini ochishga bag‘ishlangan. “Pok ruh madhida”, “Hayot chashmasi”, “Tafakkur tuhfalari”, “Tavakkul talqini”, “Najot yo‘li”, “Komillik yo‘li” kabi maqolalarida “Ruh ul-quds”, “Ayn ul-hayot”, “Tuhfat ul-afkor”, “Qut ul-qulub”, “Minhoj un-najot” va “Nasim ul-xuld” kabi forsiy qasidalarining mavzu ko‘lami va badiiy olami tahlil qilingan. “Forsiyda suxan pardoz aylab” maqolasida shoirning forsiy merosiga umumiy baho berilsa, “Tatabbu’ – ijodiy musobaqa” maqolasida shoirning tatabbu’navislikdagi o‘ziga xosligi va mahorati qirralari yoritiladi. Kitobdan olimning “Xamsa” dostonlari nasriy bayonlari tahliliga oid maqolasi ham o‘rin olgan. Unga “Nasim ul-xuld” qasidasining nasriy bayoni ham ilova qilingan.

Ad.: *Комилов Н. Хизр чашмаси. – Т., 2005.*

M.A.

XIZRSHOH ASTROBODIY (taxallusi; ismi: Xoja Hasan) (XV asr) – shoir. N. “M.N.” tazkirasida uni xushta’b va zakiy shoir sifatida zikr etadi. Abdurahmon Jomiyning “Layli va Majnun” dostoni javobida “Zayd va Zaynab” masnaviysini yaratgan. Yaxshigina xattot ham bo‘lgan. Quyidagi tilga olingan masnaviysidan:

Ey chehra kushoyi har jamila,
Komi tu shifoyi har alila.

Tarj.: Har bir go‘zalning husnini ochadigan, har bir bemorning shifosini beradigan o‘zingsan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 3. – Душанбе, 2004.*

E.O.

XILVAT – Husayn Boyqaro, N. va bir necha mahramlar qatnashgan, she’riyat masalalari

yuzasidan, madaniyatga aloqador muammolardan bahs yuritiladigan anjuman. N. “M.N.”ning Husayn Boyqaro (Husayniy) she’riyati tahliliga bag‘ishlangan sakkizinchi majlisi so‘ngida “X.” deb nomlangan ilova qismda shohning she’rshunosligi va ijodkorlarga shafqati, marhamatini ko‘rsatuvchi bir-ikki naqlni keltiradi. Ulardan birida hikoya qilinishicha, Mavlono Lutfiy va N. bahor paytida yomg‘ir qalin yog‘ayotgan vaqtda uchrashib qoladilar. Lutfiy yodiga Xusrav Dehlaviyning hindcha she’riyatidan noyob ma’no tushadi va uni N.ga aytib beradi: Emish bahor ayyomida mahbub bir yoqqa borar ekan, shiddatli yomg‘irdan yer balchiq bo‘lib, toyib ketadi va yiqilay deganda g‘oyat nozikligidan yomg‘ir torlariga tirmashib, uning madadi b-n o‘zini o‘nglab oladi. N.ga bu ma’no nihoyatda xush keladi. Xusravga ofarinlar o‘qib, ko‘pgina shoirlar va she’riyat muxlislariga aytib beradi. Hamma lol qoladi.

Bir kun Husayn Boyqaro huzurida shu she’r haqida so‘z ochadi, lekin shoh sukut saqlab, ta’rifga chog‘lanmaydi.

Ma’lum bo‘ladiki, Husayn Boyqaroning Xusrav she’riga e’tirofi bor ekan. Keyingi majlisda shoh:

– Yomg‘ir rishtasi yuqoridan pastga yo‘nalgani uchun uning madadi bilan rostlanib olish mantiqqa zid bo‘ladi, deya o‘z fikrini aytadi. Buni eshitgan N. va boshqalar g‘oyat ta’sirlanadilar. Husayn Boyqaro bahs mavzusida quyidagi baytni majlis ahliga havola qiladi:

Za’fdin kulbamda ko‘pmoq istasam aylar madad.
Ankabute rishta osqon bo‘lsa har devorga.

X.dagi suhbatlardan yana biri qunduzlik yosh shoir Qabuliy (q.) she’ri b-n bog‘liq. N. hikoya qilishicha, Qabuliy bir g‘azalini unga keltirib o‘zi chiqara olmagan baytini tuzatib berishni o‘tinadi. N. o‘sha baytni boshqatdan yozib beradi. G‘azal shoh huzuridagi majlisda o‘qilganda Husayn Boyqaro N. yozgan baytni tanigan va shoirni chaqirtirib, uning ustidan hazil-mutoyiba qilmoqchi bo‘lgan. Lekin yosh shoir ko‘pchilik oldida uyalmasin, deya she’rdan so‘z ochmagan edi. Bu esa N.ni ham xijolatdan xalos qilgan.

N. Husayn Boyqaro X.larida bu xil ajoyib va g‘aroyib suhbatlar ko‘p bo‘lar, bunda shohning she’rshunosligi, ijodkorlarga hamiyati namoyon bo‘lar edi, deydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

S.G‘.

XILVAT / UZLAT – arabcha bu kalimalarning ikkovi ham chetga olish, yolg‘izlanish, inzivo ma’nolarini anglatadi. “Xilvat” va “Uzlat” faqat zuhdning emas, balki tasavvufning ham asosiy ma’naviy tajribalaridandir. Chunki barcha buyuk payg‘ambar va avliyolar ma’lum bir muddat dunyo ishlari, kundalik hayot tashvishlaridan yiroq bir X. holini yashashgan. Hazrati Muso (a.s.)ning Sino tog‘idagi tanholikda o‘tkazgan kunlari so‘fiylar u-n X.ning mumtoz namunasi bo‘lgan. So‘fiy ijodkorlarning, deyarli, barchasi X., U. yoki inzivo holatlaridan bahs yuritishgan. Bunday she’rlar N. devonlarida ham mavjud. Ulardan biri:

Parim bo‘lsa, uchub qochsam
ulustin to qanotim bor,
Qanotim kuysa uchmoqdin,
yugursam to hayotim bor,

matla’si b-n boshlanadigan g‘azaldir.

X. kalimasi tilga olinishi b-n uzlat so‘zi yodga keladi. Ular ayni bir ma’noda qo‘llaniladi, deb o‘ylansa ham, tasavvufiy nuqtayi nazardan farqlanish bor. X. – odamlar va jamoadan olis bir go‘shaga chekinib murshiddan tahsil olish bo‘lsa, uzlat nafsdan, nafs orzu-istaklaridan kechish, husni mutlaqdan o‘zgani tark aylashdir. U. – farz va fazilat uzlatiga ajratilgan.

Farz U.i gunoh va gunohkorliklardan, jahl va jaholat ofatlaridan qutilishdir. Fazilat U.i esa keraksiz, befoyda va o‘tkinchi ishlarga mashg‘ul kimsalardan qochish “malaka”si.

Kim dedim: "Uzlat eshigin ochqamen,
Dahri bema'ni elidin qochqamen,

deganda N. fazilat U.ni nazarda tutgan.

Dunyodan ma'no axtargan kishi, albatta, ma'nisizlikdan qochadi va U. da yangi holat, yangi haqiqatlarga yo'l ochib, o'zining ma'naviy xaloskoriga aylanadiki, bunday yashashga tahalli deyilgan. Ammo buning so'qqaboshlik, odamlar b-n til topisha bilmaslikka hech aloqasi yo'q. X. masalasida N. naqshbandiylikning "xilvat dar anjuman" shartiga amal qilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

I.H.

XIRAD (f.) – aql, fikr; zehn; hush, idrok. Islomda X. (aql) Alloh taolo tomonidan insonga berilgan ulug' ne'matlardan biri hisoblanadi. Chunki Qur'on barcha ishlarda aqlni ishlatishga chaqirib, aqlini ishlatmaganlarni qattiq tanqid qiladi. Qur'onda aqlga taalluqli so'zlar 50 marta, "aql egalari" so'zi esa 10 martadan ko'proq ishlatilgan. Shuning o'zi ham Ilohiy kalomning aqlga alohida e'tibor berganiga dalilidir. Alloh kitobida aqlning ulkan ne'mat ekanini bayon qiladi: "Bunda, albatta, aql ishlatuvchi qavmlar uchun oyat-belgilar bordir", "Aqlni ishlatmaysizlarmi? Aql yuritmaysizmi? Tafakkur qilmaysizmi?" *(Ra'd surasi, 4-oyat, Baqara surasi, 76-oyat).*

Boshqa oyatlarda esa aqlni ishlatmaganlarni ayblaydi: "Allohning huzurida eng yomon jonzotlar kar, soqov, aqlni ishlatmaydiganlardir" *(Anfol surasi, 22-oyat).*

X. istilohi N. asarlarida ko'p qo'llanilgan bo'lib, X. sohibining donishmand va mutafakkirligini namoyon etishga xizmat qilgan. Jumladan: *nuri xirad (aql nuri, aql ravshanligi), xiradoyin (aqlli, hushyor), xiradbaholig' (aqlli sanalganlik, zehnli deb baho olishlik), xirad irshodi (donolik yo'llanmasi), xiradlig' (aqlli), xiradmand (aqlli, dono), xiradmandlig' (aqllilik), xiradnihod (aqlli, hushli, zehnli), xiradpayvand (aqlli deb sanalgan), xiradparvar (aqlli, donishmand), xiradpesha (aqlli, dono, o'ylab ish qiluvchi), xiradrub (es-hushni oluvchi, aqldan ozdiruvchi), bexirad (aqlsiz; hushsiz), bexiradlig' (aqlsizlik, nodonlik), noxiradmand (aqldan ozgan, aqlsiz), kamoli xirad (aql komilligi), xirad payki (aql elchisi), xirad ahli (aql ahli)* va hok. so'z va so'z birikmalari mavjudki, ularning tahlil va talqin qilsak, avvalo, bevosita N.ning teran tafakkur quvvatini, nihoyatda keng tushunchali xiradmand Shaxs bo'lganini his qilamiz. Aslida, N.ga ko'ra, avvalo aqllarni yaratgan va komil aql egasi Alloh taolo bo'lib, qodirlik, oqillik va barcha sharafli sifatlar Unga xosdir.

Keyingi komil aql egasi Muhammad (s.a.v.), payg'ambarlar, avliyolar va ularning izdoshlaridir. Aslida inson yaralishi, nutqi, aqli va boshqa sifatlari b-n ulug' xilqatdir. Uning bu sharofatidan aqllar lol qoladi.

Barchadin ashrafki ul inson erur,
Chun kamolida xirad hayron erur.

Ammo inson ilm va tarbiya vositasida namunali bir shaxs yo ma'rifatsizligi hamda axloqsizligi tufayli hayvondan tubanga aylanadi.

N. g'azallarida odam farzandini mukarram va sharif sifatlari b-n zikr qilsa-da, unga aql va ma'rifat bergan bo'lsa-da, Tangrining haqiqatini bilishdan ojiz. Quyidagi baytda aql har qancha fikr yurtishi b-n Tangri zotini hech bir narsaga tashbeh qilolmasligini, aksincha, so'z topolmay hayron-u lol bo'lib turishini ta'kidlaydi:

Xirad zotingda tashbih etkali har fikrkim aylab,
Takallum anda yo'l topmay magar hayhot-hayhote.

X. (aql) ulug' bir ne'mat. Ko'p mushkil ishlarni hal qiladi. Lekin ishq oldida ojiz bo'lib qolganidek, Tangri zotini bilishga ham ojiz. Shuning u-n ham Payg'ambarimiz Rasululloh (s.a.v.) "Tangrining yaratiqlari haqida fikr qilinglar, uni zoti haqida fikr qilmanglar", deb buyurganlar. N. quyidagi qit'asida o'zini xalq ichida oqil hisob-

lab, Tangrining zotini bilish u-n aql yuritadigan insonlardan ajablanadi. Ularni dengiz pufakchalarining jomi b-n suv miqdorini o‘lchashga kirishgan odamlarga o‘xshatadi. Ya’ni Tangri zotini har qancha uringan va fikr qilgan b-n bilib bo‘lmasligiga ishora qiladi.

Haq zotig‘a biravki, xirad birla fikr etar,
Otin el ichra oqil-u farzona aylabon.
Miqdorini tengiz suyining istar anglamoq,
Lekin hubob jomini paymona aylabon.

N. dostonlarining kirish qismlarida, munojotlarida ham Tangri zotini bilib bo‘lmasligi, uning hech narsaga o‘xshamasligi, aqllar bu yo‘lda lol-u hayron ekanliklari juda ta’sirli va hayajonli misralar b-n ifodalangan. “L.M.” muqaddimasidagi munojotda ham yuqoridagi fikrlarimizga hamohang misralar bisyor:

Ey Majnunung xiraddin ozod,
Ohi beribon xiradni barbod.

Ey aql sening yo‘lungda g‘ofil
Kim, telba sening yo‘lungda oqil.

...Har negaki desa o‘xshamassen,
Sendin durur ul, sen ul emassen...

N. “X.”dostonlarida ko‘ngilni jon, jasad, ruh, aql, xirad, til, uyat, poklik, nasihat, kenglik kabi tushunchalar b-n bog‘lagan holatda mantiqiy qarashlarini ham bildirgan. Zero o‘zganing ko‘nglini topish, ko‘ngildagidek ishlash va yashash, umuman, ko‘ngildagidek hayot kechirish u-n har bir insondan katta kuch, mardlik va odamiylik, umuman, ma’naviy jasorat b-n birga *aql(xirad)* va ko‘ngil hamrozligi talab qilinadi. Bu to‘g‘risida N. “Hamd”laridan birida shunday deydi:

Sendin insong‘a tor-u pud-u jasad,
Jasad ichra ko‘ngul, ko‘ngulda xirad.

E’tibor berilsa, N. “X” dostonlaridagi yetakchi qahramonlaridan birining har bir harakatini namuna qilib, uni X. timsoli sifatida ko‘rsatadi. Shunday obrazlardan biri “F.Sh.” dostonida Shopur obrazidir. Chin o‘lkasidan dengiz safariga chiqqan Farhod halokatga uchrab, to‘fon uning siniq qayig‘ini Yaman sari surganida Farhodni qutqargan kema ahli orasida Shopur ham bor edi. Shopur – mohir musavvir, jahongashta donishmand odam. Yurtma-yurt kezib, ko‘pni ko‘rgan, katta hayotiy tajriba va nozik kuzatishlar, beqiyos insoniy fazilatlar sohibi bo‘lgan bu *“xiradmandi zamona”* bir ko‘rishdayoq Farhodning ko‘nglida pinhon bir dardi borligini sezadi va uning ko‘ngliga qo‘l solib, sirridan ogoh bo‘ladi.

N.ning “S.I.” dostonida Hurmus Iskandar xizmatidagi “besh yuz hakim”dan kecha-yu kunduz hukmdor b-n birga bo‘lgan o‘n maslahatchi – donishmanddan biri sifatida tasvirlangan. Syujet rivoji davomida Hurmus ikki yuz hakim-hunarmandlarga ilmiy rahbarlik qilib suturlob ixtirosida faol qatnashadi, Iskandar vafoti munosabati b-n uning: onasiga Aflotun, Suqrot, Balinos, Burotlar qatorida ta’ziya bildirib, taskin beradi, iztirob chekmaslikka da’vat etadi. Hurmus dostonda Iskandar u-n yo‘l-yo‘riq, pand ibrat va nasihat-maslahatlardan tashkil topgan maxsus “Xiradnoma” yozgan yetti donishmand jumlasiga kiradi. U o‘z “Xiradnoma”sida hukmdorni shafqatli bo‘lishga, saxovatga chaqiradi, shan-u shavkat orttirish maqsadida qilingan isrofgarchilikni qoralaydi:

Saxo uldururkim, shahi nomvar,
Basirat ko‘zi birla aylab nazar...

Berur luqma angakim och erur
Olur ko‘nglin aningki – muhtoj erur.

“S.I.”ning asosiy qismi esa o‘z ichki qurilishi jihatidan “X.”dagi boshqa dostonlarning birortasiga ham o‘xshamaydi. Doston, aytilganidek, yirik davlat va jamoat arbobi bo‘lmish muallifning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, axloqiy-didaktik qarashlarining badiiy majmuasi. N.ning o‘ziga zamondosh hukmdorlar va taxtga da’vogar va-

liahdlarga davlatni boshqarish yuzasidan pand-u nasihat-xiradnoma tarzida yozilgan. Doston xuddi shu holat va bosh maqsadga to‘la mos keluvchi ichki qurilishga ega. Asosiy syujet b-n bog‘liq har bir bob to‘rt “mustaqil” bo‘laklardan tashkil topib, bunday boblarning shakliy sxemasi ham o‘ziga xos.

N. dostonida Iskandarning har bir xatti-harakatini aqlga muvofiq va aqllilik belgisi deb biladi. U oxir zamonda chiqib, insonlarga zarar yetkazadigan Ya’juj va Ma’juj qavmining tadbir qilib, ular yo‘liga maxsus devordan to‘siq qilgan Iskandarni purxirad (aqli komil) deb ta’riflaydi:

...Bu oyin ila chun shahi purxirad
Ki, Ya’juj daf’i uchun chekti sad.

Dostonda Iskandar birinchi navbatda diyonatli, fuqaro va mamlakat taqdiri ustida tinmay qayg‘uruvchi, o‘zini “oddiy banda”lar b-n teng bilib, zolimlarni jazolab, har qanday zo‘ravonlikka barham beruvchi, yurtida qat’iy intizom va osoyishtalik, jamiyat a’zolari o‘rtasida esa halollik, insof barqaror eta olgan adolatli hukmron, ideal shoh kabi gavdalanadi. U ham jismonan, ham ma’nan yetuk, chuqur bilim va tajribaga ega tadbirkor, ilm-u fan qudratiga ishonib, donishmandlarni o‘ziga hamroh tutgan, hunar ahliga homiylik qilgan barkamol shaxs. Shunga qaramay, dostonda ta’kidlanishicha, u tinmay izlanishda bo‘lib, o‘z bilimini oshirishga katta ahamiyat beradi:

Jahon ahlicha ilm-u donolig‘i,
Xirad quvvatidin tavonolig‘i.
Bo‘lub qismi ham hikmat-u ham bilik,
Yana chekmayin o‘rganurdin ilik...

Bevosita doston voqeasi azador onaga Iskandarning doimiy hamrohi bo‘lgan yetti hakim (Aflotun, Suqrot, Balinos, Buqrot, Xurmus, Farfunyus, Arastu)ning ta’ziya-taskini va pand-u nasihati bayoni bilan yakunlanadi. Keyin yana ilova boblar boshlanib, ularda Sulton Husayn Boyqaro va valiahd-shahzoda Badiuzzamon madh etiladi, qadimgi Yunon donishmandlarining qisqa-qisqa “xiradnomalari” keltiriladi. Bevosita Badiuzzamonga qaratilgan bu “Xiradnoma”larni umuman davr shoh-shahzodalariga davlat va mamlakatni idora etish nizomi deyish mumkin. Jumladan, Arastu shunday ta’kidlaydi:

Xaloyiqqa ko‘rma, qilib benavo,
Uzungga ravo ko‘rmaganni ravo!

Suqrot “Xiradnoma”sida mana bularni o‘qiymiz:

Ulus ranjig‘a ehtimom aylama,
O‘zungga bu otni harom aylama.

Raiyatni adlingdin osuda tut,
Farog‘at mihodida uyquda tut.

Yana bir donishmand Asqalinus esa bo‘lajak hukmronni quyidagicha ogohlantiradi:

Qayu shahki, yo‘q adl ila dod anga,
Ulus birla mulk o‘lmas obod anga.

Chu shoh zulm sori uzotti ilik
Ochildi ulug‘ zulm o‘yiga eshik.

...Kerak shah adolat shior aylagay,
Ki, zulm ahlini xoksor aylagay.

Dostonda Asqalinus hakim el-yurtni tutish, davlatni boshqarish masalalarida Iskandarga maxsus “Xiradnoma” – pand-u nasihatlar kitobi yozgan 7 donishmandning (Arastu, Aflotun, Suqrot va boshqa) biri sifatida gavdalantirilgan. Insonparvar shoir Asqalinus tilidan mamlakat ahvoli, xalq hayoti shohning qanday ekani b-n bevosita aloqador, hukmdor adolatli bo‘lsagina, el-u yurt tinch va obod bo‘ladi, agar u zulmkor bo‘lsa, cheksiz zulm-zo‘ravonlik eshigi lang ochilib ketadi kabi o‘tkir ijtimoiy fikrlarni ilgari suradi, shoh odil bo‘lishi kerak, degan qat’iy xulosani bayon etadi. Mana, Asqalinus “Xiradnoma”sining asosiy g‘oyalari:

Qayu shahki – yo‘q adl ila dod anga,
Ulus birla mulk o‘lmas obod anga!

Chu shah zulm sori uzotti ilik,
Ochildi ulug‘ zulm uyiga eshik.

Aning zulmi kishvarg‘a oncha emas,
Ki, zolim ne aylasa – so‘z demas.

Agar shahga ish lutf-u gar kin erur.
Eliga hamul sheva oyin erur...

Kerak shah adolat shior aylagay
Ki, zulm ahlini xoksor aylagay!

Suqrot Sharq ilmiy, tarixiy va badiiy adabiyoti, xalq og‘zaki ijodi namunalarida katta donishmandlik va chuqur aql-idrok, shuningdek, yorug‘lik, nur, ziyo ramzi sifatida talqin qilinadi. “S.I.” dostonida Suqrot faol ijobiy qahramonlardan – Iskandar xizmatidagi besh yuz hakimga boshchilik qilib hukmronga “kecha-yu kunduz” hamroh bo‘lgan o‘n donishmand – maslahatchilardan biri sifatida tasvirlangan. Dostonda N. uni “hikmat ahlining ustodi” deb qalbi bilim va hikmatga to‘laligini e’tirof etadi:

... Ul hikmat ahlining ustodidur,
Zamiri xirad hikmat obodidur.

Suqrot Aflotun b-n hamkorlikda Iskandar topshirig‘iga ko‘ra ikki yuz hakimga rahbarlik qilib, usturlobni ixtiro etadi, hukmdorning suv sathi va suv osti safari oldidan unga dengiz va muhitlar haqida, ularning yer yuzi bo‘ylab joylashishi to‘g‘risida ma’lumotlar beradi. Suv safari vaqtida yo‘lboshchilik qiladi, ilmiy kuzatuvlar, o‘lchash va tekshirish ishlariga rahbarlikni amalga oshiradi. Suqrot Iskandar onasiga ta’ziya bildirib, pand-u nasihat qilgan yetti donishmandning biri, dostonning yakunlovchi bobida esa Suqrotning Arastu, Aflotunlar qatorida Iskandar u-n adolatli va rivoyatparvar bo‘lishni tavsiya etuvchi “Xiradnoma” yozganligi aytiladi.

Xalq o‘rtasida katta obro‘ va ishonchga ega bo‘lgan mashhur donishmandlar tilidan aytilgan, aslida esa, yirik davlat va jamoat arbobi, ulug‘ mutafakkir N.ning XV asr tarixiy sharoiti va aniq voqealari asosida shakllangan tugal ijtimoiy-siyosiy qarashlarini lo‘nda ifodalovchi bu “Xiradnoma”lar dostonning xulosasi, “qissadan hissa” kabi, adolatli hukmron Iskandar hayoti va faoliyati tajribasining bosh ibrati, asosiy saboqlari kabi o‘qiladi.

N. X. ahli kimlar va ularning qanday fazilatlari borligini ko‘rsatib o‘tganidek, Shu b-n birga aqlsiz, bexiradlarning alomatlarini ham aytib o‘tadi. “M.Q.”da “Xudpisand”ni ya’ni kibrli, manman, o‘ziga bino qo‘yuvchi, maqtanchoq kishini “noxiradmand”, – beaql, beidrok, takabbur deb ataydi. Uning ta’kidlashicha, bexirad shunday odamki, *“... af’oli va ashkoli har nekim bor, o‘ziga xo‘b ko‘rungay, agarchi elga mardud bo‘lg‘ay, anga mahbub va marg‘ub ko‘rungay”.* “..Haqning hech amrig‘a bo‘yun qo‘ymag‘ay va shayotinning barcha buyrug‘in bajo keltururdin to‘ymag‘ay”. “...mayg‘a haris, badmast va muzmin, majlisig‘a giriftor bo‘lg‘onning qutulmog‘i nomumkin” va hokazo. Ulug‘ shoir “M.Q.” kabi asarlarida o‘z davridagi illatlarni va bexirad insonlarning tuban qiyofasini ochib bergan. Bexiradlik, aqlsizlik sabablarini, nafsparastlik, shuhratparastlik, manmanlik illatlarini ayovsiz fosh qilgan. Ilm va axloq tarbiyasi bilan erishiladigan odamiylik asoslarini ham ko‘rsatib o‘tgan.

N.ning X., aql haqidagi baytlari va keltirgan rivoyatlari insonlarni doimo o‘zini taftish qilishga, aql va mulohaza b-n ish yuritishga da’vat qilaveradi.

Ad.: *Алишер Навоий. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-9-10-жилдлар. – Т., 2011; Абу Ҳомид Ғаззолий. Кимиёи саодат. – Т., 2005; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик, 4-жилд. – Т., 1984.*

S.R.

XIRQA – shayx, murid va darveshlar kiyadigan maxsus kiyim. Bu so‘zning lug‘aviy ma’nosi *yamoq, parcha* yoki *quroqdan tikilgan kiyim* demakdir.

Istilohda esa shayx b-n murid orasida aloqa o‘rnatilishi, “muridning nafs bilan o‘zi orasida shayxning hukmronligini qabul aylashi”dir.

X. ikki turli – muridlik X.si tabarruk X.si bo‘lgan. Tabarruk X. muridlarga ko‘pchilik shayxlar tomonidan ham in’om qilingan. “N.M.”dan: “Shayx Ali Lolo mashoyixdin ko‘pining suhbatig‘a yetgan ermish. Derlarki, yuz yigirma to‘rt shayxi komili mukammaldin xirqa olib ermishlar va vafoti chog‘i yuz o‘n uch xirqa ul jumladin mavjud ermish”.

“Agar “xirqa” so‘zi qayerdan kelib chiqqan, deb so‘rasalar, – deydi Husayn Voiz Koshifiy, – “xaraq” so‘zidan kelib chiqqan, deb aytgil. “Xaraq” arab tilida parchalash demakdir. Bas, xirqa kiygan kishi barcha dunyoviy aloqalar ipini parchalasin (uzsin), toki u xirqa kiyishga munosib odam bo‘lsin. Yana deydilarki, bu nom “xarq” so‘zidan olingan va “xarq” keng sahrodir. Ya’ni, bunday to‘nni kiygan kishi ishqning poyonsiz sahrosida suluk qilib, mujohidat biyobonini riyozat qadami ila bosib o‘tadi. Va yana “xirq” so‘zidan olingan ham deydilar. Chunki xirqa kiygan odam o‘zini ulug‘vor, oliyjanob tutsin, ya’ni ta’maning shumligiga aldanib, xor bo‘lmasin. Va yana ba’zilar, bu nom “xirqa” dan kelib chiqqan, deydilar va bu quloqning teshiladigan va sirg‘a osiladigan joyidir. Demak, X. kiygan odam eranlarning tamg‘ali (xalqa taqqan) quli bo‘lsin... ”

Tasavvuf arboblariga ko‘ra, X. kiyish odati Ibrohim (a.s)ga borib bog‘lanadi. Ibrohim Xalilulloh olovga tashlangani zamon Alloh hukmi bilan Jabroil jannatdan bir ko‘ylak keltirib, unga kiydirgan va shu ko‘ylak sharofatidan ul zot olovda yonib kul bo‘lishdan qutulgan ekanlar. Bu ko‘ylak dastlab hazrati Is’hoqqa, so‘ngra Yoqub payg‘ambarga meros o‘tgan, Yoqub esa uni maxsus bir qutiga solib, o‘g‘li Yusuf (a.s.)ning bo‘yniga osib qo‘yganlar. Yusuf payg‘ambar yalang‘och holda quduqqa tashlanganida Jabroil yetib kelib, qutini ochib, unga ko‘ylakni kiydirgan ekan... So‘fiylar X.da xuddi ana shu ko‘ylakning sirini ko‘rib, unga ma’naviy ma’nolar berganlar. Suhravardiy X.ning ikki turga – muridlik X.si va tabarruk X.ga ajralishini aytib, yana bunday degan: “Shayxlarning muridlariga kiydirishni istaganlari asl xirqa muridlik xirqasidir. Muridlik xirqasini haqiqiy muridlar, keyingisini esa murid bo‘lmagan, ammo ularga o‘xshashga harakat qiluvchi mutashabbih muridlar kiyurlar”.

N.ning “N.M.”asarida Shayx Saididdin Farg‘oniyning “Xirqa nisbati ikkidur: biri irodat xirqasi va ani bir shayxdin o‘zgadin olmoq ravo emas va yana biri tabarruk xirqasi. Va ani ko‘p mashoyixdin tabarruk uchun olmoq ravodur”, degan fikrlari keltirilgan.

X.ning rangi qora, ko‘k (moviy) va oq bo‘lgan. Tariqatga yangi kirganlar – qora, ma’lum bir darajaga yetishganlar – moviy, sayri sulukni nihoyasiga yetkazganlar oq rangdagi xirqa kiyishlari bir odatga aylantirilgan bo‘lsa-da, xirqapo‘shlikda moviy rangning nufuzi ancha ustun bo‘lgan.

Tasavvufdan murod – X. kiyish emas, balki nafsni yengish, ko‘ngilni poklash, sabr va bardosh ila fikr, ma’rifat, ruhoniyat yuksakliklarini egallashdir.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

I.H.

XISRAVSHOH (t.y.n., 1503-y.da Qunduzda o‘ldirilgan) – temuriylar davrida yashagan va faoliyat ko‘rsatgan amirlardan. Hisor va Qunduz hokimi.

Asli kelib chiqishi turkistonlik qipchoqlardan. Dastlab navkar bo‘lgan. 1469-y.dan boshlab temuriy Sulton Mahmud mirzo qo‘lida xizmat qila boshlagan va tez orada uning huzurida katta mavqeni egallagan. Sulton Mahmud vafotidan so‘ng (1495) X. uning katta o‘g‘li Sulton Ma’sud mirzoga qarshi isyon ko‘tarib, qo‘lga

tushirgan va mil tortib ko‘zlarini ko‘r qilgan. Keyinroq esa Sulton Mahmudning ikkinchi o‘g‘li Boysunqur mirzoni o‘ldirgan va shu tariqa hokimiyatni to‘liq o‘z qo‘liga olgan. Lekin 1503-y.da Bobur uni hokimiyatdan mahrum qilgan. X. Xurosonga borgan. Bu vaqtda Hisor va Qunduz viloyatlari Shayboniylar qo‘liga o‘tgan edi. X. bu viloyatlarni qaytarib olmoqchi bo‘lib, Sulton Husayn Boyqarodan ko‘mak so‘ragan. U yordam bermagach, o‘zi kelib Qunduzda Hamza Sulton va Mahdiy Sulton qo‘shinlari bilan jangga kirgan va o‘ldirilgan.

X.ning nomi N. asarlarida uchramaydi. Lekin Sulton Husayn Boyqaroning Qunduzga (X. ning viloyatiga) qilgan yurishi munosabati b-n bildirilgan fikr-mulohazalar mavjud. Jumladan, “Xam.M.” asarida Navoiy podshohning Qunduz viloyatiga yurish qilishini hech kim ma’qullamagani, xususan, Abdurahmon Jomiy unga Sultonni bu yurushdan qaytarishni tayinlagani haqida yozadi. “M.” asari tarkibida esa Hisorga qilingan yurish munosabati b-n yozilgan maktub ham bor.

N. hayotida yuz bergan bir musibatli voqea ham X. b-n bog‘liq. N.ning yaqin qarindoshi Mir Haydar Sabuhiy Xurosonni tark etib, X. huzuriga borgan. X uni Hirotga, Sulton Husayn Boyqaroga elchi qilib yuboradi. O‘sha vaqtda X. b-n Sultonning munosabatlari yomon bo‘lib, X. otasiga qarshi bosh ko‘targan Badiuzzamonga ko‘mak bergan edi. Sulton Husayn esa bundan benihoyat g‘azabga kelgan. Bundan tashqari, uning ko‘nglida Mir Haydarga nisbatan ilgaridan kudurat bor edi. Shuning oqibatida u Mir Haydarni qatl ettiradi. Bu voqea N.ga qattiq ta’sir qilgan va uni qayg‘uga solgan.

Ad.: *Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – T., 2002; Навоий замондошлари хотирасида. – T., 1985; Хондамир. Ҳабиб ус-сияр. – T., 2011.*

Q.E.

XITOBIYA – birinchi bor yo‘llanayotgan, ya’ni javob sifatida yozilmagan maktub. Sharq nasrida mavjud insho turlarining (murosala, murofia, riqo’) har biri, o‘z navbatida, ikki ko‘rinishga ajralgan. Birinchi yo‘llangan maktub X., oldin yuborilgan xatga javob sifatida yozilgan bitik javobiya deb atalgan.

Ma’lumki, N. yozishmalarida inshoning mavjud an’anaviy turlaridan foydalangan va yuqorida tilga olingan uchta turga mansub go‘zal insholarni yaratgan. “M.”da ularning X. ko‘rinishi ham mavjud. X.ning o‘ziga xos jihati shundaki, unda tashabbus muallif tomonidan bo‘ladi. Javobiyada esa bunday emas, bu xatlarda muallif o‘ziga yuborilgan maktubdagi fikrlarga munosabat bildiradi, boshqa kishining so‘roviga javob beradi, ya’ni boshqacha aytganda, mavzuni narigi tomon, boshqa shaxs belgilaydi. X.da esa aksincha, muallif o‘zi lozim topgan, zarur deb hisoblagan narsalar haqida yozadi. Aynan shu sababli ushbu ko‘rinishda bitilgan maktublar muallifning faoliyati, uni ko‘proq qaysi masalalar qiziqtirganini, o‘z xatlarida u qaysi mavzu va muammolarni ko‘targani, nimalarni muhim deb bilganini yaxshiroq ko‘rsata oladi. Bundan tashqari, u boshqalarning (ya’ni hukmdorlar, mansabdorlar, va h.k.) e’tiborini ham ana shu o‘zi muhim deb hisoblagan masalalarga qaratishi, ularning yechimini topish borasida maslahatlar va tavsiyalar berish imkonini ham yaratadi. N. “M.”ida X. sifatida bitilgan maktublari buni yaqqol tasdiqlaydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Муншаот. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – T., 2011; Эргашев Қ. Ўзбек насрида иншо. – T., 2011.*

Q.E.

XOVARIY – samarqandlik shoir, yamoqchilik b-n tirikchilik o‘tkazgan. Ta’bi ochiq va sho‘xlikka moyil bo‘lib, badiha aytishda mohir bo‘lgan. N. “M.N.” tazkirasida tarji’bandining takrorlanib keladigan bandini, shuningdek, bir matla’sini uning ijodidan namuna sifatida keltiradi:

Mezanad goh ba cho‘bu goh ba musht,
Bozi-bozi maro bixohad kusht.

Tarj.: U meni goh tayoq, goh musht b-n uradi, shu bahona o‘ynay-o‘ynay o‘ldirmoqchi bo‘ladi.

Man ki umre ba havas payravii dil kardam,
Umr bigzasht-u nadonam, ki chi hosil kardam.

Tarj.: Men bir umr havas orqasida dilning izidan chopdim. Umr shu tariqa o‘tdi-yu, bu ishimdan nimaga erishganimni bilmadim.

Qabri qayerdaligi ma’lum emas.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

E.O.

XOJA – “S.S.” dostonidagi Diloromni tarbiyalagan xitoylik savdogar boyning ismi. X. Diloromni Bahromga bir mamlakat xirojiga teng pulga sotgan. N. Diloromdek go‘zal qizni pulga sotgani u-n X.ni qoralab, xasga tenglashtiradi va bunday ishni savdo kishisi (tojir)gina qilishi mumkin, – deydi:

Jonni yormoqqa sotti Xojam xas,
Kim bu savdoni tojir etgay-u bas.

Lekin X.da ozgina bo‘lsa-da odamgarchilik, Diloromga nisbatan mehribonlik tuyg‘usi yo‘q emas edi. Bu uning ma’lum vaqtdan keyin Diloromdan xabar olish u-n Xitoydan Bahrom yurtiga yo‘l olishida namoyon bo‘ladi. Xorazmlik – yettinchi musofirning hikoya qilishicha, X. kechasi dashtda Diloromni Bahrom g‘azabiga uchrab, qo‘l-oyog‘i bog‘liq holda yotganini ko‘radi, darhol uni qutqarib, yordam beradi, otalik qiladi. Natijada Dilorom o‘lim xavfidan qutulib qoladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011.*

L.J.

XOJA – istiloh, atama, tariqat pirlariga nisbatan keng ishlatilgan sifat yoki unvon. “N.M.”-da: “Akobirni Xurosonda *shayx* derlar va Samarqandda *xoja* va Rumda *bob* va Hindda *qozi* derlar”, – deyiladi. “Tasavvuf terminlari lug‘ati”da esa bu kalima shunday izohlanadi. “...ilk naqshbandiya shayxlari sayyid, afandi, shayx kabi unvonlar o‘rniga X. unvoni b-n xotirlanadi. Shu bois Abdulxoliq G‘ijduvoniyga nisbat berilgan tariqatga Xojagon deyilgan”. Tasavvufda murshidlarning sayyid, X. deya atalishi ma’naviy valodat, ruhoniy bir nasab ma’nosida keladi. Murid murshidning ma’naviy avlodidir. Zero, Payg‘ambarimiz (s.a.v.) “Men sizning bobongiz maqomidaman”, deganda ruhoniy bobolikni nazarda tutganlar. Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy, Xoja Ahmad Yassaviy, Xoja Ahror, Sayyid ota kabi, hatto Xizr (a.s.) ham Xoja sifatlashi b-n kelganligi fikrimizning isbotidir. Ammo N. “N.M.”-da ta’kidlaganidek, Xojayi olam, Xojayi koinot – Muhammad (s.a.v)dir: “Allohning payg‘ambari aytgan: “Uvays Qaraniy ehson va mehribonligi bilan tobeinlarning yaxshisidir”. Goh-goh Xojayi olam (s.a.v.) muborak yuzin Yaman sori qilib der erdikim, “Men Xudoning nafasini Yaman tomonidan tuymoqdaman”. Birovning vasfikim, oning vassofi Xojayi koinot bo‘lg‘ay va nafasi Rahmon bo‘lg‘ay, vasf qilmoq bag‘oyat beodobliq bo‘lg‘ay”. “M.Q.”da Rasululloh (s.a.v) Xojayi kavnayn – ikki dunyo egasi deyiladi: “Ulki aning zoti bila mubohidur xojayi kavnayn debdurkim, “Adlun soatun xayrun min ibodatis-saqalayn”.

Insonning X.ligi uning ma’rifati bilandir. N. bu xususda shunday deydi:

Mundoq kishida yo‘q xirad va hushdin nishon,
Bilgil gado, agarchi, erur Xojai Jahon.

Ad.: *Пошшохожа. Мифтоҳ ул-адл ва Гулзор. – Т., 1962; Ҳасанхожа Нисорий. Музаккири аҳбоб. – Т., 1993.*

Z.R.

XOJA (POSHSHOXOJA, 1480–1547) – adib. Ismi Ibodulla Sayid Poshshoxoja Abdulvahhobxoja o‘g‘li bo‘lib, Niso shahrida tug‘ilgan. Buxoroda yashab, Xoja taxallusi b-n ijod qilgan, kichik nasriy hikoyalar muallifi. Buxoro adabiy muhitining rivojiga munosib hissa qo‘shgan. Ijtimoiy, falsafiy va didaktik

mavzudagi “Miftoh ul-adl”, “Gulzor”, “Maqsad ul-atvor” asarlari muallifi. X. bir qancha g‘azal, qita, ruboiy janrlarida ham ijod qilgan. Jumlat ul-mulk, sadr va shayx ul-islom vazifalarida faoliyat yuritgan. “Muzakkiri ahbob” asari muallifi X.ning o‘g‘li Hasanxoja Nisoriy *“Xoja tabiatida sidq juda kuchli edi. Va fuqaro xizmatini xolisanlilloh ado qilardilar. Ko‘p fazilatlardan boxabar kishi edilar. Ayniqsa, she’r fani va insho sohasini to‘la egallagandilar”*, – deb yozadi. Nisoriyning qayd etishicha, otasi forsiy va turkiy tillarda devon bitgan (Mazkur devonlari bizga qadar yetib kelmagan). *“Kunduz avqotim sening hajringda nolon kechadur”,* – deb boshlanadigan g‘azalini Bobur mirzoga yuborgan. Hasanxoja Nisoriy *“...Podshohga ma’qul kelib, maqtagan edilar”*, – deya Boburning X. g‘azaliga yuksak baho berganini yozadi.

N. ijodi, undagi umuminsoniy g‘oyalar X. dunyoqarashi va asarlaridagi diniy-tasavvufiy, axloqiy, didaktik qarashlarning shakllanishiga muhim omil bo‘lgan. N. ijodidagi turli obraz va syujetlar X. asarlariga asos bo‘lib xizmat qilgan. Xususan, “Maqsad ul-atvor”ni “H.A.” dostoniga nazira tarzida bitgan. O‘n besh bobdan iborat bo‘lgan “Miftoh ul-adl”da olimlar, odil va zolim sultonlar hamda ijtimoiy-siyosiy, axloqiy mavzudagi qirqqa yaqin ixcham, ibratli hikoyatlar jamlangan. Turli mavzularni qamragan “Gulzor” asarining tuzilishi “Miftoh ul-adl”ga yaqin. Mazkur asarlarda ko‘tarilgan muammolar dolzarbligi, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari jihatdan N.ning “H.A.”dagi hikoyatlar mazmuniga hamohang o‘rinlar mavjud. Hasanxoja Nisoriyning ma’lumotiga ko‘ra, X. Kistan Qaro sultonga atab “Layli va Majnun” asarini yozgan, biroq mazkur asar topilgan emas.

X. Xojagon silsilasiga mansub bo‘lib, tariqatdagi shajarasi jihatdan Sadrxoja orqali Hazrati Zangi otaga taqaladi. Xojagon tariqatining mashhur vakili Mahdumi A’zam Kosoniy X.ni “Shahbozi baland parvoz” (Yuksak parvozli lochin) deya ta’riflagan. X. Buxoroda vafot etgan hamda Bahouddin Naqshband maqbarasi yoniga dafn qilingan.

Ad.: *Poshshoxoja. Miftoh ul-adl va Gulzor. – T., 1962; Hasanxoja Nisoriy. Muzakkiri ahbob. – T., 1993.*

E.Q.

“XOJA ABDULLO ANSORIY...” – N.ning “L.T.” asarida ixlos, xushu’, xolis niyat qilish masalasiga bag‘ishlangan “O‘z adosi qusuri uzrig‘a tamsil” qismidan keyin illyustratsiya tarzida keltirilgan hikoyatning asosiy personaji. 5 baytli ushbu hikoyat tarixiy shaxslar b-n bog‘liq ibratli fikrlar aks etgan qismlardan sanaladi. Unda shayx X.A.A.ning “g‘aflatda va xushu’siz Qur’on o‘qishdan ko‘ra, Allohni mudom yodda tutgan holda soz chalib, qo‘shiq aytish avlo” mazmunidagi mashhur so‘fiyona fikri berilgan:

Bo‘lsa lahnu nag‘mada ogohlig‘,
Behki toat vaqtida gumrohlig‘.

N.ning bu hikoyati zamirida harakat, yurish-turish qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, niyat yaxshi, xolis bo‘lishi lozim, degan g‘oya ham yotadi.

X.A.A. Haraqoniyning shogirdi, piri Xuroson nomi b-n mashhur shayx, faqih va muhaddis olim bo‘lib, XI (1006–1088) asrda Hirotda yashagan. “Tabaqot as-sufiya”, “Manozil us-soyirin” hamda “Munojot” kabi asarlarni unga nisbat beradilar.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Бертельс Е.Э. Избранные труды. Суфизм и суфийская литература. – М. 1965.*

S.O‘.

XOJA ABDULLOH SADR (XV asr, 2-yarmi) – musiqashunos, sozanda, olim, xattot. Xoja Muhammad Marvoridning o‘g‘li. Asosiy ilm-u hunarlarni otasi huzurida o‘rgangan. N. “M.N.” tazkirasida ma’lumot berishicha: “muddate vazorat devonida muhr bosar erdi va o‘z ixtiyori bila istig‘for qilib, ofiyat kunji ixtiyor qildi. Bu toifadin anga muyassar bo‘lg‘ondek oz kishiga bo‘lmish bo‘lg‘ay. O‘zi kichik yoshida ulum kasb

qildi. Advor va musiqiy ilmida va xutut fanida benazir bo‘ldi. Va qonunni ma’lum emaskim, hargiz kishi andoq cholmish bo‘lg‘ay. Va podshoh xizmatida oliy mansabqa sarfaroz bo‘ldi. Ul jumladin biri sadoratdur. Va insho fanini ham kamolotg‘a yetkurdi. Va o‘zi yaxshi muhovaraliq va yaxshi xulqluq va yaxshi suhbatliq yigitdur... Va bu matla’ aningdurkim:

To dil dahonu turrai on dilnavoz yoft,
Xo‘rd obi zindagoni, umri daroz yoft.

Tarj.: Dil to u dil oluvchi yorning og‘zi-yu sochini topdi, go‘yo obi hayot ichdi-yu, uzun umrga muyassar bo‘ldi.

Sozandalik va xonandalikda ko‘proq Shodiy Hiraviyga ergashgan va uning asarlariga qator naziralar ijod qilgan. “Peshravi Sadr”, “Amali Mahliqo”, “Naqshi Marvorid” (“Ravona”, “Ufor”, “Barafshon” usullarida) va boshqa shular jumlasidandir. Barbat, qonun kabi sozlarni chalishda mohir bo‘lgan. Qonun u-n ko‘plab kuylar yaratgan. Ta’bi nazmi ham bo‘lib, Sadr taxallusi b-n go‘zal g‘azallar yozgan. Asosan, o‘z g‘azallariga kuy bastalagan.

Kitobat, jadvalkashlik (kitobga ziynat berish), naqqoshlik va muhr yasash kabi hunarlarda ham tengsiz edi. Xattotlikda Sultonali Mashhadiyning izdoshi bo‘lib, Sa’diy Sheroziy, Kamol Xo‘jandiy, Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiylarning asarlarini zeb-u oroyish berib kitobat qilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 3. – Душанбе, 2004.*

E.O.

XOJA AVHAD MUSTAVFIY (to‘liq ismi: Faxruddin Xoja Avhad Mustavfiy Sabzavoriy (1384–1463, Sabzavor) – shoir, matnshunos. Sabzavor a’yonlaridan bo‘lib, bu xonadonni mustavfiylar (mustavfiy – hisobchilardan hisob oladigan devon ahli sardori, bosh hisobchi, sardaftar) deganlar. Oila qurmay, o‘zini ilm-u ijodga bag‘ishlagan. Davlatshoh Samarqandiy ta’biri b-n aytganda, bu dunyoda bilim orttirishdan bo‘lak narsaga havasi bo‘lmagan. N.ning yozishicha, Kadud laqabi ham bo‘lib, o‘z asrining yagonasi edi. Tib, insho, tarix, sarf-u nahv, riyoziyot, nujum kabi o‘z davrining barcha ilmlarida tengsiz bo‘lgan. Hatto ulumi g‘ariba – sehr ilmidan ham boxabar edi. Ma’rifatli va fozil inson bo‘lib, arab, fors va boshqa tillardagi ming jildli kitobni kutubxonasida jamlagan va ularni ishonchli nusxalarga solishtirib, xatolari va o‘chib ketgan joylarini tuzatgan. She’r-u shoirlikda tom mahorat hosil qilgan bo‘lib, zamonasining qomusiy allomasi edi.

Davlatshoh Samarqandiyning ma’lumot berishicha, “Xoja Faxriddin Avhadiy bilimdonligi, fozil va kamolotga yetganligi tufayli faqir-u darveshona tabiat paydo qildi. Zakiy va iste’dodli kishilar hammasi hamma vaqt uning suhbatiga borib, ilm kasb qilish b-n mashg‘ul edilar... Undan yaxshi so‘z va yaxshi kitob yodgor qoldi. Tevarak-atrof amirlari-yu vazirlari Xojaga yaxshi in’omlar yuborar, Xoja esa ularni hamnishinlari, shogirdlari tirikchiligiga sarflar edi. Shu kunlarda u nodiri davronning manzil-makoni fozillar orzu etgan majlisxonadir”.

Amir Shohiy Sabzavoriy b-n yaqin munosabatda bo‘lib, o‘zini uning shogirdi hisoblar edi. Devon sohibi bo‘lib, qasida, g‘azal va qit’alari b-n shuhrat qozongan. Shohiy Astrobodda umri oxirida aytgan ikki matla’sini X.A.M. tugatsin deb vasiyat qilgan va u mazkur baytlarni davom ettirib, yaxlit g‘azal holiga keltirgan hamda devoniga kiritgan. Ustozi vafotiga bag‘ishlab marsiya ham yozgan. U Shayx Ozariy vafoti ta’rixini ham aytgan.

N. “M.N.” tazkirasida “Bu faqir ul buzrukvor suhbatig‘a yetar erdi, ko‘p iltifotlari bor erdi”, – deb yozadi va ijodidan namuna sifatida quyidagi matla’ni keltiradi:

Ey zi bo‘stoni jamolat chashm-u
jonro zeb-u zayn,
Gashta bar nargis havodori chashmat farzi ayn.

Tarj.: Ey sening jamoling bo‘stonidan ko‘z b-n jonga zeb-u ziynat yetishdi. Nargisga ko‘zing b-n faxrlanish farzga aylandi.

N. “N.M.” tazkirasida ham uni alohida zikr etib, donishmand kishi ekani, arab tilidan ham boxabarligini ta’kidlaydi. Xalqdan uzilib, Sabzavor viloyatida istiqomat qilar edi. Podshoh-u hokimlar uning xizmatiga borib, ma’rifiy suhbatlaridan bahramand bo‘lganlar. Lekin o‘zining faqr istig‘nosi shunchalik bo‘lganki, ularning kelgan-kelmaganiga e’tibor ham qilmagan. “Bu haqir borasida ko‘p qatla fotihalar o‘qub, xayr duosi qilibdurlar. Umid uldurki, ijobat asari zohir bo‘lg‘ay, – deb yozadi N. – Xojaning hoqoyiq-u maorifi ko‘p bor. She’r devoni dog‘i bor”.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар бўстони. – Т., 1981; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988.*

E.O.

XOJA ALOUDDIN (t.y. va v.y.n., Kirmon) – shoir, donishmand. N.ning “M.N.” tazkirasida ma’lumot berishicha, vazir Xoja Afzal Muhammadning qarindoshi va Bibi Munajjimaning inisi. Dunyoviy ilmlarni egallaganidan keyin tabiatida darveshlik kayfiyati ustunlik qiladi. Makkaga borib, 30 yilga yaqin bu muqaddas shaharda yashab, suluk va toatga mashg‘ul bo‘ladi. Tariqatda buyuk maqomlarni bosib o‘tib, yuksak martabalarga etadi. Oliy himmati tufayli dunyoga etak silkib, maqsad ka’basida mustahkam o‘rnashgancha visol haramiga e’tikof qilgan. Keyin Hirotga kelib, Abdurahmon Jomiy b-n suhbat tutgan. Jomiy vafotidan so‘ng yana Makka sari yo‘lga tushgan. Yo‘lda Nizomiy Ganjaviy “Xamsa”sining ilk dostoni “Maxzan ul-asror” tatabbu’sida bir masnaviy yozib, N.ga yuborgan. Unda ko‘p haqiqatlar va tasavvufiy ma’nolarni darj etgan. Makkada tasavvuf istilohlari sharhida yana bir masnaviy bitib yuborgan. Ta’rifida qalam ojizdir. Tahqiq ahli o‘qiganidan keyin muallifning mahoratiga beradilar. Kitobi hamdining ilk bayti quyidagicha:

Ey jahon yofta namud az tu,
Bir adam tuhmati vujud az tu.

Tarj.: Ey jahon sendan vujud topgan, tiriklik olamiga hayot bag‘ishlagan ham o‘zingsan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

E.O.

XOJA AFZAL (to‘liq ismi: Xoja Afzaluddin Mahmud ibni Ziyovuddin Muhammad Kirmoniy) (t.y.n., Kirmon – v. 1504, Hirot – shoir, donishmand, davlat arbobi. Kirmon mulkining aslzodalaridan, vazirlar avlodidan. Husayn Boyqaroning vaziri. N.ning “M.N.” tazkirasida ma’lumot berishicha, go‘zal ta’bli, ezgu axloqli, odobli va vazmin kishi bo‘lgan. Fazl-u kamolotda, davlat devoni ishlarini yuritishda benazir, moliya ishi, hisob-kitob bobida tengsiz edi. N. “M.”dagi ma’lumotlardan birida uni shunday ta’riflagan:

Anga yo‘q barcha fazllarda badal,
Fazl ahlidin otidek Afzal.

Sulton Abusaidning vaziri Xoja Burhoniddin Abulmajidning nazariga tushib, uning tavsiyasi b-n saroyga yo‘l topadi – hisob-kitob ishlarini boshqaradi. 1473-y.dan boshlab 15 yilga yaqin Husayn Boyqaro saltanatida vazirlar devonini boshqargan. Insof va adolat b-n ish tutgan. Lekin Majdiddin Muhammad fitnasi tufayli Sulton b-n munosabatlari buziladi. Majdiddinning yovuz niyatini oldindan sezgan X.A. soliq undirish bahonasi b-n Astrobodga – o‘sha paytda hokim bo‘lgan N. huzuriga jo‘naydi. Xoja G‘iyosiddinni Hirotga jo‘natib, u orqali Majdiddinning maqsadi X.A.ning mol-mulkini tortib olib, o‘zini esa yo‘qotmoqchi ekanligidan xabar topgan N. uni Iroqqa jo‘natib yuboradi. Iroq hukmdori Sulton Ya’qub uni yaxshi kutib olib, marhamatlar ko‘rsatadi. U yerdan hajga jo‘naydi. Makka safaridan yana Iroqqa qaytib, bir muddat xotirjam umrguzaronlik qiladi. Iroqda unga vazirlikni taklif qila-

dilar, lekin u: “Men faqat o‘z podshohimga xizmat qilaman!” – deb, bu taklifni rad etadi. Keyin bir muddat Qumda yashaydi.

1497–1498-yy.da Husayn Boyqaro yana X.A. ni huzuriga da’vat etib, vazirlik mansabini qayta topshiradi. Endi u o‘z dushmanlaridan Nizomulmulkning hukmronligiga chek qo‘yadi. Vazirlik mansabidan yuqorilab, devon boshlig‘i mansabiga tayinlanadi. Hurmati oshgandan oshib, devoni oliyning boshlig‘i lavozimiga ko‘tariladi. Munshiy va tug‘ronavislar uning laqabini saltanat hamda xalifalik asoslarining ulug‘ nozimi, podshohlikning yaxshi ish yurituvchisi, deb yozadigan bo‘ladilar. Boburning yozishicha, u Kobulga kelgan mahalda X.A. bek bo‘lib, devonda muhr ham bosar edi.

X.A. faoliyati va shaxsiyatining diqqatga sazovor jihatlaridan biri uning N. b-n yaqinligi edi. U davlat ishlarini olib borishda N.ning maslahatlariga amal qilgan. O‘z navbatida N. ham X.A.ni qo‘llab-quvvatlagan va unga homiylik qilgan.

X.A. sohibdevon shoir bo‘lib, qasida va g‘azal janrlarida qalam tebratgan. Davlatshoh uning she’rlariga yuqori baho berib, Xoju Kirmoniy va Salmon Sovajiylar ijodi b-n qiyoslaydi. Husayn Boyqaroga bag‘ishlab go‘zal qasida yaratgan. Devoni bizgacha yetib kelmagan. Parokanda she’rlari tazkiralarda uchraydi. N. “M.N.”da uning quyidagi baytini keltirgan:

To har sharare dona shavad kishti jahonro,
Barbod dihad otashi dil xirmoni jonro.

Tarj.: To har bir uchqun dunyo ekinzorida donaga aylanguncha dil o‘ti jon xirmonini yelga sovuradi.

Yoki:

Nago‘yi chashmi xud bastam baroi daf’i ozorash,
Xayoli ro‘yat in jo bud, po‘shidam zi ag‘yorash.

Tarj.: Nigohi qadalib, ozor bermasligi u-n ko‘zlarini yumib oldi dema, yuzing xayoli jo bo‘lgani u-n raqiblar ko‘rmasin deb ko‘zlarimni yumib oldim.

904–1498–1499-yy.da N. haj safariga ijozat so‘rab Husayn Boyqaroga murojaat qilganida X.A.ga ham maxsus xat yo‘llagan edi. X.A. N. ning dafn marosimlarida ham faol qatnashgan, o‘zi esa 906-y. rajab oyi, ya’ni 1501-y. fevral oyida vafot etgan va Hirotning Gozurgohida Xoja Abdulloh Ansoriy yoniga qo‘yilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Давлатшоҳ Самарқандий. Тазкират-уш-шуаро. – Хўжанд, 2015; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 2002; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988.*

S.G‘., E.O.

XOJA BAHOUDDIN UDIY (XV asr 2-yarmi, Samarqand) – musiqashunos, bastakor, sozanda, shoir. N.ning zamondoshlaridan. Uning huzurida tarbiyat topgan. Asli samarqandlik. Boshlang‘ich ma’lumotni tug‘ilgan yurtida olib, keyin tahsilini kamolga yetkazish u-n Hirotga boradi. Yoshligidan Farobiy, Ibn Sino va boshqa olimlar asarlarini mutolaa qilgan. Soz chalish, qo‘shiq aytish, musiqa asarlarini tasnif etishda Ustod Shodiy Hiraviyga izdoshlik qilgan. Xususan, ud chalishda mohir bo‘lib, ud soziga o‘zgartirishlar kiritgan, uni chalishning yangi usullarini kashf etib, ud u-n kuylar yaratgan.

Bobur u haqda shunday ma’lumot beradi: “Udni mazaliq cholib, mazaliq nimalar aytur edi. Udning torlarini yakka qilib bu cholibtur. Aybi bu ediki, bisyor noz bila cholur edi. Shayboniyxon bir navbat soz buyurur, takalluf qilib ham yomon cholur, ham o‘z sozini kelturmay, yaramas soz kelturur. Shayboniyxon fahmlar, buyururkim, suhbatda-o‘q g‘alaba gardanig‘a urarlar. Shayboniyxonning olamda bir yaxshi ishikim bor budur, filvoqi’ xo‘b bordur. Ushmundoq nozuk mardaklarga mundin ko‘prak sazo kerak.

“Peshravi Xoja Udiy”, “Naqshi Sarvi Bo‘ston”, “Ajali Kamonabro‘”, “Savti Sitamgo-

ri” (“Shodiyona”, Barafshon” va “Isfahon”, “Hijoz”, “Navo”, “Rost” maqomlari usulida) shular jumlasidandir.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 2002; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 3. – Душанбе, 2004.*

E.O.

XOJA DEHDOR (to‘liq ismi: Xoja Hofiz G‘iyosuddin Dehdor (XV asr, Hirot) – shoir. Abdurahmon Jomiy va N.ning yaqin suhbatdoshlaridan. Xondamir “Makorim ul-axloq”da N. b-n X.D. yaqinligini tasdiqlovchi bir hikoyat keltiradi.

X.D. va N. b-n do‘stlashganlari Husayn Boyqaro hukmronligi o‘rnatilgan yillarga to‘g‘ri keladi. Bu haqda N. “Xam.M.” so‘nggida Jomiy vafotiga bag‘ishlangan lavhada yozadi. X.D. Qur’onni yetti qiroat b-n o‘qigan, uning hofiz bo‘lishiga Jomiy sabab bo‘lgan ekan. X.D. Jomiy dunyodan o‘tishi chog‘ida Astroboddan yetib kelib, uning boshida Qur’on tilovat qilgan ekan. Zayniddin Vosifiy “Badoye’ ul-vaqoye’” asarida Shayxzoda Ansoriy (q.s.) tilidan N. bilan X.D.ning qanday qilib tanishganlari haqida katta va maroqli hikoyatni keltiradi.

Sulton Husayn Boyqaro saroyida ham nadim sifatida o‘ziga xos mavqega ega bo‘lgan. Mirxond “Ravzat us-safo”da “farosat va zakiylik kamoloti” bobida asrining tengi yo‘q so‘zamoli va latifago‘ylari sardori hamda hamisha hazilomuz so‘zlar va xursandchilikni qo‘zg‘atuvchi mutoyibotlar sayqali b-n podshohning humoyun xotiri oynasidan xafalik zangini ketkazuvchi”, deb unga yuksak ta’riflarni ravo ko‘radi. Darvesh Ali Balxda Husayn Boyqaroga qarshi isyon ko‘targanida o‘rtaga tushib, nizoni bartaraf etgani, Darvesh Alini Husayn Boyqaro huzuriga olib kelib afv tilattirgani ham uning sulton saroyi nazdidagi mavqeyi va hurmatidan dalolat beradi.

“Xam.M.”da keltirilgan lavhalardan ma’lum bo‘lishicha, X.D. Jomiy b-n N. o‘rtasida elchilik qilib turgan, ya’ni N. o‘z uyida yo saroyda bo‘ladigan ziyofatlardan nasiba ilinsa, ustoziga shu odam orqali yuborar, u bo‘lsa yo‘lda yeguliklardan avval o‘zi miriqib yeb olar, pul-muldan ham urib qolar ekan. Yana Jomiy b-n qo‘shilib ham yeyishar ekan. Shunga ishora qilib, Jomiy unga bag‘ishlab qator hajviy ruboiy va qit’alar bitgan. M-n:

Ey Xoja, maro ba lutfi xud parvard,
Z-ovardani pushti dunba farbeh kard.

Binshasti-yu dunbaro ba rag‘bat xo‘rdi,
Burdi ba shikam onchi ba pusht ovardi.

Tarj.: Ey Xoja, meni xizmating b-n xursand qilding – orqangda dumba orqalab kelding, lekin uning hammasini o‘zing ishtaha b-n yeding. Shu tariqa orqangda olib kelgan narsangni qorningga solib olib ketding.

Agarda N. pul berib yuborsa, qadam haqi olib qolar, lekin samimiy va soddaligidan o‘zi olib qolganini o‘ylamay “Mir 500 (yoki 1000) tanga berib yubordilar”, − deb to‘g‘risini aytib qo‘yar, Jomiy hazillashib: “Menga olib kelganingni boshingdan sochaman”, – desa, “Menga yo‘lda olib qolganim ham yetadi”, – der ekan.

N. “M.N.”da uning yana bir xususiyati – nadimlik yuzasidan Sulton majlisida muqallidlik qilib, ko‘pchilikning tabiatini o‘xshatishini aytib o‘tadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамсат ул-мутаҳаййирин. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Мирхонд. Равзат ус-сафо. // Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985.*

E.O.

XOJA IMOD (XV asr oxiri, Lor – XVI asr boshi, Gujarot) – shoir. N. “M.N.” tazkirasida, asosan, Hirotda yashagani yozilgan. Tijorat b-n tirikchilik o‘tkazgan. Odamshavanda kishi

bo‘lgan. “Masnaviysida xele rang va ziynat bor. “Layli va Majnun”g‘a tatabbu’ qilibdur. Ko‘p eldin yaxshiroq tushubtur va g‘azal tavrida dag‘i yaxshi ta’bi bor”:

Burd so‘yi lab zabon-u shu’la zad bar joni man,
Kard zohir lam’aye az otashi pinhoni man.

Tarj.: Tilini labining uchiga olib bordi-yu, mening jonimga shu’la urdi. Shu tariqa mening yashirin nafasimdan alanga paydo qildi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

M.A.

XOJA ISMAT BUXORIY (Taxallusi; To‘liq ismi: Xoja Faxriddin Ismatulloh binni Ma’sud Ismat Buxoriy (1365/1375–1436, Buxoro) – mutasavvif shoir va valiyulloh. Xojalar avlodidan bo‘lib, savdogarlik b-n shug‘ullangan otasi Buxoroning fozil kishilaridan bo‘lgan. “Ulug‘lar naslidan va fazilat ahli zumrasidan bo‘lib, nasabi Ja’far ibni Abu Tolibga borib ulanadi”, – deb ma’lumot beradi Davlatshoh Samarqandiy. X.I.B. boshlang‘ich ma’lumotni otasidan olib, keyin Buxoro madrasalarida o‘qigan. O‘z davrining asosiy bilimlarini egallab, zamonasining yetuk olimi va shoiri bo‘lib yetishgan. Uning dovrug‘ini eshitgan Xalil Sulton Samarqandga – o‘z saroyiga da’vat etadi. U shahzodaning doimiy hamsuhbati va she’riyatdagi ustozi edi. Samarqand adabiy muhitida katta mavqega ega bo‘lib, hatto taniqli shoirlar ham undan maslahat olib turishgan. Islom dini yo‘lidagi xizmatlari u-n Faxriddin – dinning faxri deb ulug‘langan. She’r ilmi, aruz va inshoda tengsiz bo‘lgan. Ismat va Nosiriy taxalluslari b-n ijod qilgan she’rlari Sharq mamlakatlarida shuhrat tutgan.

X.I.B.dan bizgacha 8000 baytdan iborat devoni va 1035 baytli “Ibrohim Adham” dostoni yetib kelgan. Jumladan, 2 devoni nusxasi (inv. № 805/x.1435) va qasidalar to‘plami (inv. № 2529/III) O‘zR FA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanadi. Devoni qasida, g‘azal, muxammas, tarkibband, qit’a, ruboiy, masnaviy, muammo, marsiya, hajviya kabi janrlardagi she’rlarni o‘z ichiga oladi. Bu devon 1987-y.da Tehronda nashr qilingan. Unga Ahmad Karamiy “Zabardast olim va porso orif” nomli so‘zboshi yozgan. So‘zboshida ta’kidlanishicha, irfoniy jihatdan X.I.B. she’rlari Hofizga va ravonlikda Sa’diyga o‘xshaydi.

X.I.B. Abu Abdullo Rudakiy va Nosir Buxoriylardan keyin Buxoroda “so‘z qadrini, she’r shuhratini qaytadan yuksak darajalarga ko‘tardi”. Mirzo Ulug‘bek davrida Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy tomonidan turkiyda yaratilgan ilmi bade’ga bag‘ishlangan ilk turkiy asar − “Funun ul-balog‘a” (“Yetuklik ilmlari”)da she’rlaridan bir necha iqtiboslar keltirilganligi, N. tomonidan ijodi yuksak baholangani uning mahoratli va mashhur shoir bo‘lganligini ko‘rsatadi. Ba’zi g‘azallari qo‘shiqqa aylanib, “Shashmaqom” tarkibidan o‘rin olgan.

N. “M.N.” tazkirasining birinchi majlisida X.I.B.ga ham o‘rin ajratib, jumladan, yozadi: “Movarounnahr buzurgzodalaridandur. Zohir ilmin takmil qilg‘ondur. G‘oyat xushtab’lig‘idin o‘zin she’rg‘a mansub qilib, devoni mashhur bo‘ldi. Va Xalil Sulton otig‘a yaxshi qasidalari bor”. “M.A.”da “...yana bir necha vaznki, ba’zini Ajam shuarosi mutaaxxirlari aytibdurlar va ba’zi bu zamonda nazm topibdur va hech aruzg‘a doxili bo‘lmaydur, agarchi filhaqiqat aruz buhurig‘a doxildurlar, ishorate alar sori qilmoq xoli az munosabate ermas erdi. Ul jumladin, ramali maxbundurki, har misra’i sekiz rukndurki, bayti o‘n olti bo‘lg‘ay”, – deya ayni vaznga Xoja Ismatning o‘zbekcha baytlarini misol tariqasida keltiradi:

Qomat-u zulf-u ko‘z-u qosh-u uzor-u xat ila xoli
Labingdurki, alarcha emas, ey sho‘xi sitamgar.
Sarv ila sunbul-u nargis yangi
oy-u quyosh-u sabzayi
Jannat kurrayi nofa-u gulbarg aro shakkar.

X.I.B. maqbarasi peshtoqiga sayyidlardan biri tomonidan bitilgan quyidagi to‘rtlik darj qilingan ekan:

Bu kavsaroso chashma oldida avval tahorat qil,
Keyin pir Xoja Ismat qabrini kirib ziyorat qil.
Agar ikki jahondan istaganing bo‘lmasa hosil,
Bu sahroga kel-u bechora sayyidni haqorat qil.

T.Qorayev, R.Vohidov, F.Qosimov, S.S.Buxoriy, S.Olim kabi olim va adiblar X.I.B. haqida tadqiqotlar olib borganlar. S.Bobokalonov “Xoja Ismat Buxoriy she’riyatining janriy tarkibi, uslubi va badiiyati” mavzuida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Хожа Исмат Бухорий. Ғазаллар, рубоийлар // Бухорийлар бўстони. – Т., 1998; Хожа Исмат Бухорий. Ғазаллар, рубоийлар. – Бухоро, 2002; Хожа Исмат Бухорий. Рубоийлар // Донишмандлар туҳфаси. – Т., 2009; Абдураҳмони Жомий. Баҳористон. – Душанбе, 2014; Давлатшоҳи Самарқандий. Тазкиратуш-шуаро. – Хужанд, 2015; Салоҳиддин Тошкандий. Темурнома (Амир Темур Кўрагон жангномаси). – Т., 1992; Қораев Т. Хожа Исматулло Бухорий. Танланган асарлар. – Т., 2008; Олим С. Хожа Исмат Бухорий // “Бухоро мавжлари”, 2008; Бухорий С.С. Бухоронинг табаррук зиёратгоҳлари. – Т., 2015; Бобокалонов С. Хожа Исмат Бухорий шеъриятининг жанрий таркиби, услуби ва бадияти. – Т., 2012.*

E.O.

XOJA KAMOLUDDIN UDIY – N. davrining yaxshi cholg‘uvchilaridan bo‘lgan. Xalq ichida shuhrat tutgan. Donishmand kishi bo‘lib, nafis she’rlar ham yozgan. “M.N.” tazkirasida ohorli tashbeh asosiga qurilgan quyidagi matla’si uning shoirlik mahoratiga namuna sifatida keltiriladi:

Namexoham zi dida bar ruxat oyinaye sozam,
Zi mujgon bahri zulfat anbaroso shonae sozam.

Tarj.: Ko‘zimni yuzing u-n oyina, kipriklarimni zulfing u-n muattar taroq qilmoqchi emasman.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

M.A.

XOJA MAS’UD QUMIY (taxallusi; to‘la ismi: Rukniddin Mas’ud Turkman Qumiy (t.y.n., Qum – 1488, Hirot) − forsiygo‘y shoir. Tug‘ilgan shahrida tahsilini kamolga yetkazib, shoirlikda dovrug‘ taratgan. She’riyatda martabasi oliy edi. Oshiqona g‘azallari mashhur bo‘lgan. Hirotga kelib Jomiy va N. boshliq adabiy davraga yo‘l topadi. N. “M.N.”da uning Qum shahrining ulug‘laridan ekanligi haqida ma’lumot berib, o‘zi b-n hamsuhbat ekanligini qayd etadi. Ijodiga yuksak baho berib, masnaviylari puxta va g‘azallari ravon edi, go‘zal she’r va baytlari ko‘p deydi. Sulton Husayn Boyqaro saltanati tarixini nazmga solishni unga buyuradi. 12 ming baytga yaqin yozadi. “Yusuf va Zulayho”, “Shams va Qamar” dostonlari, “Tig‘ va qalam” munozarasi mashhur. 5 ming baytdan ziyod turli janrdagi she’rlarni o‘z ichiga olgan devoni xalq ichida shuhrat tutgan.

Quyidagi baytini N. juda go‘zal chiqibdi, deya e’tirof etadi:

Be tu chun dar girya xobam mebarad,
Xob mebinam, ki obam mebarad.

Tarj.: Sensiz yig‘lay-yig‘lay uyquga ketsam, tushimda suv oqizib ketayotganini ko‘raman.

Bir maktubga ilova qilib, nazm ahli va xushta’blarga yuborgan mana bu baytini ham ma’qullaydi:

Mushtoqam-u duram, g‘ami
jonkoham az in ast,
Mushtoqtaron durtarand, oham az in ast.

Tarj.: Mushtoqman-u uzoqman, jonimga azob beruvchi g‘amim shundandir. Kim qancha mushtoq bo‘lsa, shuncha uzoq bo‘ladi, ohim sababi shundandir.

Sommirzo Safaviy ham uning she’riyatda yuksak maqomga erishgani, ko‘plab masnaviylar yozgani haqida ma’lumot beradi. “Tig‘ va qalam” dostonidagi tuya ta’rifiga bag‘ishlangan bir baytini misol tariqasida keltiradi:

Jahongarde, halime, burdbore,
Zi gulzori jahon qone’ va xore.

Tarj.: Jahongashta, muloyim va sabr-toqatli bo‘lib, jahon gulzorida tikangagina qanoat qiladi.

Bu bayt aslida teran hayotiy falsafani o‘zida aks ettirgan hikmatli so‘z bo‘lib, tuyaning hayoti insonlarga ibrat o‘laroq ko‘rsatilmoqda: dunyo otlig‘ gulzorda rang-barang gullar barq urib turganda uning gullar umriga zomin bo‘lmay, bil’aks ularni tikandan xalos qilishi – gullarni qoldirib, tikanlarni terib yeyishi, tansiq va lazzatli yemishlarga emas, oddiy bir yegulikka qanoat qilishi b-n tuya nafsni jilovlash timsoli bo‘lib kelyapti. Nafsini yenggan inson obrazi bo‘lib gavdalanyapti. Holbuki, shuncha fazilati mukofoti sifatida u dunyoning eng tansiq ne’matiga munosib.

Oshiqona she’rlari xalq ichida mashhur bo‘lgan. Jumladan, quyidagi baytida ma’shuqaning xumor ko‘zini hayotiy asos vositada juda go‘zal va ohorli tasvirlaydi:

Ba davri nargisi tu sarxushii lola chi boshad?
Muayyan ast, ki mastii yak piyola chi boshad?

Tarj.: Bir piyolagina may ichgan kishining mastligi qayoqqa ham borardi? Shunga o‘xshab, sening nargis kabi xumor ko‘zingning oldida lolaning sarxushligi nima ham bo‘lardi?

Ma’lumki, lola qadahga o‘xshatiladi. Lekin uning bor-yo‘g‘i bittagina qadahi bor. Shoir bu hayot haqiqatidan badiiy haqiqat yaratadi: yolg‘iz qadahdan iborat lola ichganda ham bir qadah may ichadi-da. Bir qadah may b-n esa kishi mast bo‘lmaydi. Ma’shuqaning xumor ko‘zlari esa behisob may ichib, o‘zini bilmay qolgan o‘ta mast kishining ahvoliga o‘xshaydi.

Boshqa bir baytida esa tazod va mubolag‘a san’atlari vositasida ma’shuqaning mo‘jaz og‘zini tuzdonga o‘xshatadi, lekin shunday tuzdonki, chumolining yuragidan ham kichik, shunga qaramay, uning tuzidan olamda fitna qo‘zg‘aladi:

Namakdone, ba tangi chun dili mo‘r,
Namak chandon, ki dar olam fitad sho‘r.

Sharq mumtoz she’riyatida ma’shuqaning og‘zini mo‘jazlikda tuzdonga o‘xshatish bir an’ana tusini olgan. Buning ustiga, ma’shuqa oshiqqa ko‘pincha achchiq so‘zlar aytadi. Demak, bu jihatdan ham ma’shuqa og‘zi va tuzdonning o‘zaro nisbati bor. Ayni paytda, bu og‘izdan oshiqqa jon bag‘ishlaydigan yoqimli va ta’sirchan so‘zlar ham chiqadi. Voqean, tuz so‘zining ma’no-mazmun, latofat, zarofat, husn-u malohat ma’nolari ham mavjud. Shoir baytda yana sho‘r so‘zining ikki ma’nosidan ham tajnis san’ati vositasida mahorat b-n foydalangan: tuzli, sho‘r va fitna, to‘s-to‘polon, g‘avg‘o, jang-u janjal.

Jomiyga payravlik qilgan, “Shams va Qamar” dostonining alohida faslida ustozini madh etgan.

Ma’lum bo‘ladiki, X.M.Q. o‘z davrining mahoratli shoirlaridan biri bo‘lgan va haqli ravishda ilm-u adab ahlining ham, keng xalq ommasining ham muhabbat va e’tirofini qozongan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Соммирзои Сафавий. Туҳфаи Сомий. – Душанбе, 2018; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 2. – Душанбе, 1989.*

Ab.H., E.O.

XOJA MUAYYAD DEVONA (t.y.n. – v. 1464) – shayx, shoir. Shayx Abusaid Abulxayr avlodlaridan bo‘lib, uning izdoshlaridan edi. N.ning “M.N.” tazkirasida yozishicha, devonafe’l, telbatabiat kishi bo‘lsa-da, she’rlari ochiq

va ravon bo‘lgan. Ijodidan namuna sifatida Xoja Hofiz javobida aytgan bir g‘azalining matla’sini keltiradi:

Chashm dorem az on sham’i saodatpartav,
Ki jahonro bidihad ravshani az sari nav.

Tarj.: Saodat shu’lasini sochuvchi u shamdan jahonga yangidan ravshanlik yetishadi deb umid qilamiz.

Devona laqabini olishiga sabab shuki, podshohlik da’vo qilib, Xurosonni muridlari o‘rtasida taqsim qilgan edi. Abusaid Mirzo va Husayn Boyqaro o‘rtasidagi toj-u taxt kurashida Abusaid sha’niga madhiya aytgan va bu she’ri uning Husayn Boyqaro josuslari tomonidan o‘ldirilishiga sabab bo‘lgan.

Adabiy va tasavvufiy tazkiralarda X.M.D. mahoratli qalam sohibi sifatida zikr etilib, she’rlaridan namuna keltiriladi. Devoni va boshqa she’rlari bizgacha yetib kelmagan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 2. – Душанбе, 1989.*

E.O.

XOJA MUAYYAD MEHNA (XV asr, Mehna) – shayx, shoir. Shayx Abusaidning nabiralaridan. Mehnada yashagan yillari davomida mozor boshida shayxlik qilgan. Zohiriy ilmlardan yaxshi xabardor bo‘lib, zabardast voiz sifatida shuhrat qozongan. N.ning “M.N.” tazkirasida ma’lumot berishicha, uning va’z majlislari nihoyatda qizg‘in va ta’sirchan ruhda o‘tgan. Samo’ majlislari ham muxlislarni o‘ziga ohanraboday tortar edi. Sulton-u amaldorlar o‘rtasida hurmati baland bo‘lgan. Tazkira va bayozlarda hassos shoir sifatida ijodidan namunalar keltiriladi. Otabobolari xilxonasiga qo‘yilgan. Quyidagi matla’ uning go‘zal ta’bi mahsulidandir:

Az mahi ro‘yi tu oinayi jon soxtaand,
V-andar oyina jonro nigaron soxtaand.

Tarj.: Sening yuzing oyidan jon oyinasini yaratdilar va bu oyinaga jonni termiltirib qo‘ydilar.

“N.M.” tazkirasida N. uning o‘zi b-n munosabatiga to‘xtalib, shunday yozadi: “Bu haqirni farzandliq lafzi bila sarafroz qilib, xayr duosi ko‘p etib, boramda fotihalar o‘qub erdilar. Umid ulkim mustajob bo‘lg‘ay. Qabrlari ham Hazrat Shayxning munavvar gunbazlaridadur”.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 2. – Душанбе, 1989.*

E.O., Q.E.

XOJA MUSAYYAB (XV asr, Boxarz) – davlat arbobi, shoir. N. “M.N.”tazkirasida ma’lumot berishicha, vazirlardan biri bo‘lib, zulm-u badnafslikda vazir Mavlono Sone’iydan ham o‘tib tushar edi. Mansab g‘ururidan xalqqa ko‘p zulmlar qiladi, lekin ilohiy jazoga mustahiq bo‘lib, el uning yomonligidan xalos bo‘ladi. Ba’zida nazmga ham mashg‘ul bo‘lib, quyidagi matla’ uning qalamiga mansub:

Guzasht umr-u zi g‘aflat man onchunon mastam,
Ki hech tavba nakardamki oz nashkastam.

Tarj.: Umr o‘tdi-yu, men hamon g‘aflatdan mastman. Biror-bir tavba yo‘qki, uni sindirmagan bo‘lsam.

Som Mirzo esa, aksincha, “Tuhfayi Somiy” tazkirasida Amir Musayyab degan shaxs haqida ma’lumot berib, uning rizaviy sayyidlaridan ekani, go‘zal axloq va ezgu fazilatlar sohibi bo‘lgani, shoirlik ham qilgani haqida ma’lumot berib, ijodidan namuna sifatida bir matla’sini keltiradi:

Omad raqib-u turrayi jononi man girift,
Go‘yo ajal rasid-u ragi joni man girift.

Tarj.: Raqib keldi-yu, mahbubamning zulfidan tutdi, go‘yo ajal kelib, jonimning tomiridan olganday bo‘ldi.

Qabri Boxarzda.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Тазкираи "Тўҳфаи Сомий". – Теҳрон, 1347 (ҳ.-ш.).*

E.O.

XOJA PIR MUHAMMAD NAQQOSH (t.y. va v.e.y. n.) – tariqat ahlidan biri. N.ga zamondosh bo‘lgan va uni duo qilgan. Jumladan, "N.M."da o‘qiymiz: "Murtoz va g‘ayratlig‘ kishi erdi. Avoyilda salotin xidmatig‘a mashg‘ul erdi, so‘ngralar go‘sha tutub, ibodat va iyollar maoshi uchun kasbg‘a mashg‘ul erdi. Mavt marazida atibbo tovug‘ jo‘jasi buyurub erdilar. Ma’lum qilildi, emas erdi. Nasihat yuzidin deyildi esa, dedikim: men ulg‘ayibmen va borur vaqtdur. O‘z sihhatimg‘a bo‘lg‘on bo‘lsa, onsiz dag‘i sihhat topg‘umdur. Yo‘q ersa ul ham sud qilmag‘usidur. Hamul marazda bordi. Qabri Xoja Toq go‘ristonidadur. Bu faqir borasida xayr duosi ko‘p qilur erdi. Umid ulki, mustajob bo‘lmish bo‘lg‘ay".

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

Sh.R.

XOJA SAYYID AHMAD (XV asr) – N.ning zamondoshlaridan. Husayn Boyqaroning 1500-y. 4-avgustda bergan farmoniga binoan, N.ga haj safariga chiqish u-n ijozat beriladi. Safarning barcha yumushlari, zarur xizmat hamda ko‘maklar u-n X.S.A. mutasaddi qilib tayinlanadi va yo‘l nishoni ham shu shaxs tomonidan yuboriladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

S.G‘.

XOJA FAZLULLOH ABULLAYSIY (XV asr, Samarqand) – olim, mudarris. Abullaysiylar Samarqandning qadimiy ziyoli xonadoni bo‘lib, bu sulolaning Sharqda shuhrat topishi faqih Abullays bin Muhammad bin Ibrohim Samarqandiydan X asrda boshlangan edi. Uning "Tanbeh ul-g‘ofilin" ("G‘ofillarga tanbeh"), "Xazinahoyi fiqh" ("Fiqh xazinalari"), "Sahoyif ul-hayot" ("Hayot sahifalari") kabi axloq va huquq masalalariga bag‘ishlangan asarlari o‘z davridayoq katta shuhrat qozongan edi. Mavlono Jaloliddin X.F.A. ota-bobolari an’anasini temuriylar davrida sharaf b-n davom ettirgan yetuk olim va mohir mudarris, Samarqandning a’lam ul-ulamosi edi. Qomusiy alloma Sayyid Sharif Jurjoniyning xalifasi, undan "dars ayturg‘a ijozatnoma" olgan X.F.A.ni fiqhda tengsizligi jihatidan mashhur faqih, hanafiya mazhabi asoschisi nisbatan Abu Hanifayi soniy deb ataganlar, arab tilini kuchli bilganligidan taniqli arab tilshunosi Ibn Hojibga teng tutganlar. Bilim doirasining keng va chuqurligi jihatidan uni hatto ikkinchi Ibn Sino deb ulug‘laganlar. Boy kutubxonasi bo‘lib, chor atrofda dong‘i ketgan edi.

N. Samarqandga kelganida ana shu donishmand allomaning xonaqohidan hujra olib, ikki yil uning huzurida tahsil b-n mashg‘ul bo‘ladi − falsafa, tarix, falakiyot, matematika, jug‘rofiyaga oid asarlarni qunt b-n o‘rganadi. Ulug‘bek davrida Samarqandda aniq fanlar rivojlanganini hisobga olsak, N. bu boradagi ilmlarni, asosan, shu shaharda egallagan deyish mumkin.

Xondamirning ma’lumot berishicha, Xoja hamisha Alisherning zehni o‘tkirligini maqtab, uni boshqa talabalarga ibrat qilib ko‘rsatar va boshqalardan ortiq ko‘rar edi. N.ning o‘zi ham "M.N."da "ancha iltifotlari bor edikim, "farzand" der erdilar", − deb yozadi.

Abullaysiy madrasasida N.dan tashqari Yusuf Andijoniy, Yusuf Safoiy, Harimiy Qalandar, Muhammad Badaxshiy, Baqoiy kabi iste’dodli kishilar tahsil olganlar va shoir ular b-n yaqin munosabatda bo‘lib, keyinchalik shoir "M.N."da ular haqida ma’lumot bergan.

She’r va muammoga ham mayli bor edi, deb N. X.F.A.ning g‘azalidan bir matla’ va bir muammosini o‘z tazkirasida keltirib o‘tadi:

Qadi chun sarvi tu jon ast maro, balki ravon,
So‘yam, ey sarv, ravon shavki, fido sozam jon.

Tarj.: Sarv kabi qadding men u-n jon, balki hayotdir, ey sarv, men sari tez kelki, senga jonimni fido qilay.

Samarqandda vafot etib, o‘z xonaqohida ota-bobolari xilxonasida dafn qilingan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Хондамир. Макорим ул-ахлоқ (П. Шамсиев тарж.). – Т., 1948; Айний С. Алишер Навоий (А.Рустамов тарж.) // Танланган илмий асарлар. – Т., 1978; Абдуллаев В. Навоий Самарқандда // Сайланма. – Т., 1982; Султон И. Навоийнинг қалб дафтари. – Т., 1969.*

E.O., B.R.

XOJA XURD (XV asr, Samarqand) – shoir, olim. Samarqandning fazl-u adab ahlidan. Zamonasining har tomonlama bilimli, donishmand olimi va shoiri sifatida mashhur bo‘lgan X.X. haqida N. “M.N.”ning 6-majlisida maxsus fiqra bag‘ishlagan: “*Xoja Xurd Samarqand taxtining yakqalama (birdan bir, dovrug‘i ketgan) qozisi, “Ulug‘bek Mirzo” madrasasining mudarrisidur. Bovujudi fazl-u kamol-u aql va donish xulyasi bila orastadur...*” deb ta’riflaydi. X.X. taqvoli, go‘zal axloq b-n bezangan shaxs bo‘lgan.

N. X.X.ning ijtimoiy hayotda yumushlari ko‘p, nihoyatda band bo‘lishiga qaramasdan, ta’bi nazmi borligi, insho va tarix fani b-n ham shug‘ullanganligini qayd etib, uning muammolaridan birini misol tariqasida keltiradi. Muammo Bobo Xudoydod ismli mashhur abdolning vafotiga bag‘ishlangan bo‘lib, N. uni yaxshi baholaydi. N. “V.” asari tahririda uning tarixini “min vaqfi Alisher” jumlasiga yashirgan. Ijodidan namuna sifatida “malak” ismiga yozgan muammosini keltiradi:

Dar miyoni har chiz, k-on az avji mah to mohi ast,
Mazhari isme ast kushta gar turo ogohi ast.

Tarj.: Agar ko‘ngil ko‘zing ochiq bo‘lsa, yer qa’ridan falak avjigacha bo‘lgan oraliqda ism mazhari mavjudligini ko‘raman.

N. o‘zining “V.” asarida X.X.ni yana bir bor eslab, uning “vaqfi Alisher” nomli ta’rixiga munosabat bildiradi. Xulosa qilish mumkinki, bu ikki tarixiy shaxs o‘rtasida samimiy yaqinlik bo‘lgan, bir-birlarining turli faoliyatlariga befarq bo‘lmagan. O‘ziga va o‘zgalarga g‘oyat talabchan bo‘lgan N.ning bir ijodkor haqida bir necha bor to‘xtalgani X.X.ning salohiyatli qalamkash bo‘lganiga dalolat qiladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

E.O.

XOJA YUSUF BURHON (XV asr, Jom) – musiqashunos, tariqat piri. 7–8 yoshlaridan musiqa b-n shug‘ullanib, bu boradagi ilk saboqni yaxshigina sozanda va shoir bo‘lgan tog‘asi Muhammad Ali G‘aribiydan olgan N. keyinchalik X.Y.B. qoshida musiqa ilmi nozikliklarini o‘rganadi. Shuning u-n ham “M.N.” tazkirasida u haqda ma’lumot berar ekan, “faqir musiqiy fanida aning shogirdimen”, deb yozadi.

X.Y.B., N.ning yozishicha, “faqr-u fano tariqida suluk qilur erdi” hamda xilvat va tanholik maslagini qattiq tutardi. Tariqat ahlining peshvosi edi. “Ko‘proq o‘z she’rig‘a musiqiy bog‘lar erdi. “Isfahon” amalini bu baytig‘a bog‘labturkim:

Rasid mavsumi shodi-yu aysh-u tarab,
Agar gado ba murodi dile rasad chi ajab?

Tarj.: Shodlig-u aysh-u ishrat mavsumi keldi – gado ham o‘z dili maqsadiga yetishsa, ne ajab?

N. X.Y.B.dan nafaqat musiqiy, ayni paytda tariqat ilmini ham o‘rgangan. O‘z g‘azallariga musiqa bog‘lash va ularga tasavvufona ohang bag‘ishlashni o‘zlashtirdi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Абдуллаев А. Навоийнинг тўрт устози // ЎТА, 2006, №1;*

Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 3. – Душанбе, 2004; Очилов Э. Навоий ва мусиқа // Алишер Навоий. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Мубтало бўлдум санга. – Т., 2013.

E.O.

XOJA HASAN XIZRSHOH (XV asr, Astrobod) – shoir, xattot. Devonatabiat va foniysifat kishi bo‘lgan. Yaxshi she’rlar yozgan. “Layli va Majnun”ga o‘xshatib “Zayd va Zaynab” masnaviysini yaratgan. N. “M.N.” tazkirasida ijodidan namuna sifatida dostonidan va g‘azalidan bir baytdan misol keltiradi. Jumladan:

Soyaat har jo, ki aftad bar zamin gul bardamad,
Ne guli tanho, ki sartosar gul-u shakkar damad.

Tarj.: Har qayergaki soyang tushsa, o‘sha yerdan yolg‘iz gul emas, gul b-n birga shakar ham unadi.

Nasta’liq xatini bu yozuvda mohir bo‘lgan Hirot xattotlik maktabi namoyandalaridan Mavlono Ja’farga taqlidan go‘zal bitgan.

Abulqosim Bobur Mashhadda vafot etgan 1457-y.da X.H.X. shaharda xastalanib, holidan xabar oluvchi kishi bo‘lmagan va N.ning yordami va mehribonchiligi soyasida oyoqqa turgan. Qabri Astroboddagi Masjidi jome’ ro‘parasida.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

M.A.

XOJA HOFIZ MUHAMMAD XATTOT – Xondamir “Xulosat ul-axbor”da X.H.M. Xattot to‘g‘risida shunday yozadi: “Hirot ul-olam” asarida keltirilishicha, X.H.M.X. katta bilim va hunarga ega bo‘lib, nasta’liq yozuvidan tashqari “yetti qalam” yozuvini ifodalash san’atini eng yuqori darajalarga yetkazdi.

N.ning yaqin kishilaridan bo‘lib, uning jome’ masjididagi imomlik va xatiblik lavozimi X.H.M.X.ning zimmasida edi. Quyidagi matla’ uning ijodidan bir namunadir:

Shakli hiloli abro‘yat az chashmi tar naraft,
Mohiy zi ayni bahr dame so‘yi bar naraft.

Tarj.: Qoshingning yarim oy kabi shakli namlangan ko‘zdan ketmadi, baliq bir dam bo‘lsa-da, dengiz ko‘zidan quruqlik tomon bormadi.

Ad.: *Гиёсиддин ибн Ҳумомиддин Хондамир. Хулосат ул-ахбор фи баён ал-аҳвол ал-ахёр. (Яхши кишиларнинг ҳаётлари тўғрисида қисқача маълумотлар) асаридан бир бўлим // Гўё Эътимодий нашрга тайёрлаган // Кобул, 1966.*

K.R.

XOJA HUSAYN KIRANGIY (To‘liq ismi: Xoja Kamoliddin Husayn ibn Jaloliddin Qanbar Kirangiy) (XV asr, Abivard – Hirot) – shoir, davlat arbobi. N. “M.N.” tazkirasida ma’lumot berishicha, Abivard viloyatidan bo‘lib, Xoja Abu Nasr Mehnaning opasining o‘g‘li edi. Otasi Xoja Qanbar Xurosonning katta obro‘-e’tibor va nufuzga ega arboblaridan bo‘lgan. O‘zi tirishqoq, qat’iyatli va to‘g‘riso‘z kishi edi. Bir necha yillar yuqori mansablardan hisoblangan sadrlik lavozimida ishlagan. Husayn Boyqaroning unga hurmat va marhamati baland edi. O‘z vazifasini sidqidildan bajarib, sultonga ixlos b-n xizmat qilgan. Halolligi, to‘g‘riso‘zligi va shoh oldida hurmat-e’tibori yuksakligini ko‘rolmagan hasadgo‘ylar uni Husayn Boyqaroga yomon ko‘rsatib qo‘yadilar. Sulton sadrlikka unga sherik qilib, Mir Sarbarahna laqabi b-n mashhur Shamsiddin Muhammad Andijoniyni tayinlaydi (Mir Sarbarahnaning X.H.K. b-n mansab talashishi haqida Xondamir o‘z asarlarida hikoyat keltiradi). Natijada, u xizmat lavozimidan iste’fo beradi va qolgan umrini xilvatda o‘tkazadi. N. va Xondamirlar uning halol va diyonatli kishi bo‘lganini e’tirof etadilar. Ta’bi nazmi ham bo‘lib, quyidagi bayt uning qalamiga mansub:

Hech ohe juz ba yodat bar nameoyad zi dil,
Hech naqshe juz xayolat dar nameoyad ba chashm.

Tarj.: Dildan sening yodingsiz hech bir oh chiqmaydi, ko‘zga sening xayolingsiz biror surat kelmaydi.

X.H.K. Hirot Jome’ masjidining qibla tarafida dafn qilingan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

E.O.

XOJA YUSUF HAMADONIY – Xojagon-naqshbandiyaning mashhur shayxi. X.Y.H 440 hijriy (1048 melodiy)-y.i Hamadon shahrining Buzanjird (yoki Buzinajird) qishlog‘ida tavallud topdi. 535 hijriy (1141 melodiy) y.i Afg‘onistonning Bomiyon shahrida vafot etib, u yerga dafn qilingan. Uning vasiyatiga ko‘ra jasadi muridlari tomonidan hozirgi Turkmanistonning Marv shahriga ko‘chirilib keltiriladi va u yerga ko‘miladi.

N. “N.M.”da: “Xoja Yusuf Hamadoniy (q.s.a.) kuniyati Abu Ya’qubdur. Imom, olim, orifi rabboniy, go‘zal hollari, ko‘p ehsonlari, yuksak karomot va maqomotlari bor edi”, – deb sifatlaydi va uning Bag‘dodga borib, Abu Is’hoq Sheroziydan ilm o‘rgangani, ilmiy doiralarda qatnashgani, Bag‘dod, Isfahon va Samarqand shaharlarida hadis eshitgani va tasavvuf yo‘liga kirib, Abu Ali Formadiyga murid bo‘lgani haqida yozgan.

Ma’lumki, X.Y.H. xojagon-naqshbandiya tariqatining bosh shiorlariga aylanib ketgan “Hush dar dam”, “Nazar bar qadam”, “Safar dar vatan”, “Xilvat dar anjuman” qoidalarini ishlab chiqdi va amalda tatbiq etdi. X.Y.H.ning Xojayi jahon – Abdulxoliq G‘ijduvoniy va Piri Turkiston – Xoja Ahmad Yassaviylarni tarbiyalab kamolga yetkazgani, shubhasiz, uning tasavvuf yo‘lidagi ulug‘ xizmatlaridan biridir. Shu ma’noda, X.Y.H. yassaviya va xojagon tariqatining yetuk ma’naviy pirlaridan hisoblanadi. Abdulxoliq G‘ijduvoniy “Maqomoti Xoja Yusuf Hamadoniy” da ustozining nasabi, shakl-u shamoyilidan tortib, yashash tarzi, vafoti, muridlar va odamlar b-n munosabati, insoniy fazilatlari haqida batafsil ma’lumot beradi. “Maqomot”dan ma’lum bo‘ladiki, shayx Hamadoniy o‘ta pokiza, taqvodor, halol va diyonatli bo‘lib, boshqalardan ham shuni kutgani haqida N. o‘z tazkirasida alohida e’tirof etgan.

X.Y.H.ning “Hayot mezoni” (Rutbat ul-hayot), “Odobi tariqat” va “Inson va koinot haqida risola” asarlari Sayfiddin Sayfulloh va Nodir Hasanlar tomonidan tarjima qilinib, 2003-y. nashr etilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

S.R.

XOJA ABDULXOLIQ G‘IJDUVONIY (q.t.r.) (1103–1179) – xojagon-naqshbandiya tariqatining asoschisi; buxorolik yetti pirning birinchisi. Xojayi Jahon sifati b-n ham mashhur bo‘lgan, G‘ijduvon (Buxoro yaqini)da Imom Molik naslidan bo‘lgan malatyalik olim Imom Abduljamil oilasida tug‘ilgan.

N. “N.M.”da X.A.G‘.ning tutgan yo‘li tariqatda hujjat va namuna hisoblangani, Haq b-n nohaqni ajratuvchi, adolatli kishilar nazdida, maqbul va mo‘tabar bo‘lib, hamisha sadoqat va soflik yo‘lida yurgani, shariat va sunnatga rioya qilgani, turli bid’at-u xurofotlarga qarshi tinimsiz kurashganini qayd etadi. Shuningdek, N. X.A.G‘. Xoja Bahouddin Naqshbandni ruhoniyat jihatidan tarbiyat qilgani u-n u zotning ma’naviy piri va maxfiy (ovoz chiqarmay) zikr aytishni o‘rgatgan ustozi ekanligi va ularning ruhoniyat olamida muloqot qilganligi haqida asarida batafsil to‘xtalib o‘tadi: “Alarg‘a ko‘ngul zikri sabaqi yigitlikda Xoja Xizr (a.s.) din bo‘lubdur va ul sabaqqa muvozabat ko‘rguzubdurlar va Xoja alardin farzandliq qabul qilibdurlar va buyurubdurlarki, havzlug‘ suvg‘a kirib, g‘o‘ta ur va ko‘nglungda “lo iloha illallohu Muhammadur rasulolloh” degil. Alar Xoja buyurg‘ondek qilibdurlar va ishga mashg‘ul bo‘lubdurlar va kushodlar topibdurlar va avvaldin oxirg‘acha alarning ro‘zgori barcha xalq qoshida maqbul va mahmud ekandur”. Shunga ko‘ra, Xizr (a.s.) X.A.G‘.ga zikr piri, Yusuf Hamadoniy hazratlari esa suhbat va xirqa piridir.

X.A.G‘. yigirma ikki yoshida Buxoroga keladi va Yusuf Hamadoniyning muridi bo‘ladi. Yusuf Hamadoniyning xalifalaridan Xoja Ahmad Yassaviy Yassiga qaytarkan, ustozining vasiyatiga binoan muridlarini X.A.G‘.ga topshiradi. Shundan keyin Buxoroda murshidlik qila boshlagan bu ulug‘ zotning muridlari safiga oddiy xalq qatori, ko‘plab amaldorlar ham qo‘shilgan. X.A.G‘.ning obro‘-martabasi faqatgina Markaziy Osiyo hududi b-n cheklanmaydi. U kishining Shom diyorida ham xonaqoh barpo etib, muridlar tarbiyasi b-n shug‘ullangani haqida N. shunday yozadi: “Ularning valiyliklari yuksak darajada edi va Shomda ularning ko‘p muridlari paydo bo‘ldi. O‘sha yerda ularning ostona va xonaqohlari qurildi”.

N. “N.M.” tazkirasida X.A.G‘. hazratlarining turli karomatlaridan bahs etadi. Avvalo, shayxning har vaqt namozda Ka’baga borishi, suhbatlari ta’sirida zohidsuvrat yigitning zunnorini yechib musulmon bo‘lishi kabi valiylik karomati keltiriladi. Shuningdek, “Agar Xudovand taolo mani behisht bila do‘zax orasida muxayyar qilsa, men do‘zaxni ixtiyor qilurmen. Nevchunki, hargiz nafsim murodi bila zist qilmaydurmen. Bu holda behisht nafs murodidur va do‘zax Haq murodi”, degan so‘zlariga N. X.A.G‘.ning e’tirozini keltirish b-n soliklarga Haq roziligi nimada ekanligini urg‘ulaydi: “bandag‘a ixtiyor bila ne ish, har qayon desa bor, borurbiz va qayon desa bo‘l, bo‘lurbiz, bandaliq budur! Yo‘q, ulki, sen aytasan”.

X.A.G‘. “Vasoyo” (“Vasiyatnoma”), (bu risola “Odobi tariqat”, “Haqoyiq ul-iymon”, “Daqoyiq ul-irfon” degan nomlar bilan ham ataladi), “Maqomoti Yusuf Hamadoniy”, “Az guftori Abduxoliq G‘ijduvoniy” kabi asarlar muallifi hamdir. X.A.G‘.ning “Maqomoti Yusuf Hamadoniy” asari Sayfiddin Sayfulloh va Nodir Hasanlar tomonidan tarjima qilinib, nashr etilgan. (T.: “Yangi asr avlodi”, 2003.)

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011;*

S.R.

XOJA ORIF REVGARIY (q.s.) – mashhur shayx, buxorolik yetti pirlardan biri. Tug‘ilgan va vafot etgan yilini ba’zilar 1165–1236–37-yy. deb ko‘rsatsa, ayrim manbalarda Buxoroning Revgar qishlog‘ida tug‘ilgani va 1259-y. shu yerda vafot etgani qayd etiladi. N. “N.M.” asarida u kishi haqida “Xoja Abdulxoliqqa uch xalifa ermish: Xoja Ahmad Siddiq va Xoja Orif Revgariy va Xoja Avliyoyi Kalon. Va nisbat silsilasi Hazrat Xoja Bahouddin Naqshband (q.s.a.) bu jamoatdin Xoja Orifqa yetishur” degan ma’lumot beradi.

X.O.R. Abdulxoliq G‘ijduvoniydan tasavvuf ta’limotini o‘rgangan. U G‘ijduvoniyning to‘rtinchi xalifasi sifatida ustozi vafotidan so‘ng xojagon silsilasini boshqargan. “Silsilayi sharif”ning o‘n birinchi piri, “Mohitobon”, “Peshvoyi orifon”, “Qutb ul-avliyo” va “Valiylar yo‘lboshchisi” sifatlari b-n tilga olinadi.

X.O.R.ning bizgacha ma’lum bo‘lgan yagona asari “Orifnoma”dir. Hijriy 622 (milodiy 1225)-y. qalamga olingan bu asarda ilk so‘fiylarning fikr-qarashlari b-n bir birga, ustozi Abdulxoliq G‘ijduvoniy b-n bog‘liq manqabalar ham o‘rin olgan.

“Orifnoma” risolasi o‘zbek tilida ham nashr qilingan (T.: 1994). Ibrohim Haqqul “Xoja Orif Mohitobon” essesini yozgan (T.: 1996).

X.O.R.dan keyin serhalqa silsilani shogirdi va xalifasi Xoja Mahmud Anjir Fag‘naviy (q.s.) davom ettiradi. X.O.R. umrining oxirida jahriy zikr qilishni bosh xalifasi Mahmud Anjir Fag‘naviyga ta’lim beradi. Bu oshkora zikr ta’limi zamon ehtiyojlaridan edi. Zikrdan g‘ofil bo‘lgan xalq zikri jahriyani eshitish b-n zavq va shavqqa to‘lar, jamoa bo‘lib qilingan zikrdan ma’naviy foyda va fayzlar olardi.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Ҳаққул И. Хожа Ориф Моҳитобон. – Т., 1996.*

S.R.

XOJA MAHMUD ANJIR FAG‘NAVIY (q.s.) – mashhur shayx, buxorolik yetti pirning biri (XII asr oxiri, Vobkent tumanidagi Anjir Fag‘nav (hoz. Anjirbog‘) qishlog‘ida tug‘ilgan, Shu yerda – 1286-y. vafot etgan. Xojagon-naqshbandiya silsilasining o‘n ikkinchi piri. Kun kechirish u-n suvoqchilik va tijorat b-n shug‘ullangan. Xoja Orif Revgariyga xizmat qilib yetishgan, komil muridlaridan va eng ulug‘ xalifalaridan bo‘lgan. Ustozining xilvat, tariqat va haqiqatda sirdoshi edi. N. bu kishi haqida “N.M.”da “U Xoja Orifning xalifalaridandir”, – degan ma’lumot b-n cheklangan.

Biroq N. tayangan bir qator boshqa tazkiralarda X.M.A.F. xufiyona (yashirin) zikr b-n jahriya (baland tovushli) zikrga barobar amal qilgan. Yakka shaxs u-n maxfiy zikrni, jamoat u-n jahriy zikrni afzal ko‘rgani haqida ma’lumotlar bor.

X.M.A.F. fikricha, oshkora yoki xufya zikrdan maqsad bir bo‘lib, hikmat, maslahat va holat zarurati har ikki nav zikrda ham mavjuddir. Biroq sayr-u suluk maxfiy zikrga asoslangan.

X.M.A.F.dan keyin sarhalqa silsilani xalifalaridan Xoja Ali Romitaniy davom ettirdi.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

S.R.

XOJA ALI ROMITANIY (q.s.) – Buxoro (Romitan tumani, Qo‘rg‘on qishlog‘i) 1192, Xorazm (Ko‘hna Urganch) 1321-y. Xojagon-naqshbandiya tariqatining yirik namoyandasi. Xoja Mahmud Anjir Fag‘naviyning xalifasi. “Silsilayi sharif”dagi o‘n uchinchi halqaning piri hisoblanadi.

N. “N.M.”da X.A.R. “Xoja Mahmudning xalifalaridan bo‘lgan”i, “silsilada ularning laqabi “Hazrat Azizon” ekani, “oliy maqomlari va aniq karomatlari ko‘p bo‘lgan”i va “to‘quvchilik bilan” shug‘ullangani” haqida yozadi. Jomiyning ta’kidlashicha, Jaloliddin Rumiyning quyidagi bayti X.A.R. ga qaratilgan:

Gar na ilmi hol favqi qol budi kay shudi
Banda a’yoni Buxoro Xojai Nassojro.

Tarj.: Hol ilmi qol ilmidan yuksak bo‘lmaganda edi, Buxoro ulug‘lari qachon Xoja Nassoj (to‘quvchi)ga qulluq qilgan bo‘lardilar.

N. keltirishicha, X.A.R.: “Agar yer yuzida Xoja Abdulxoliq farzandlaridan bittasi bo‘lsa edi, Mansur hargiz dor ostiga bormagan bo‘lardi”, degan ekan. X.A.R. Romitanda bir necha yil xalqni irshod etadi, keyin Bovard (Abivard) ga ko‘chib boradi, u yerda ham muridlar yetishtiradi. Nihoyat, Xorazmga ko‘chib borib, u yerda turg‘un bo‘lib qoladi.

X.A.R. adib va shoir ham edi. N. “N.M.”da “ulardan naql qilinishicha”, deb quyidagi ruboiyni keltiradi:

Bo harki nishasti-yu nashud jam’ dilat,
V-z tu naramid suhbati ob-u gilat.
Zinhor zi suhbatash gurizon mebosh,
Varne, nakunad ruhi azizon bihilat.

Tarj.: Kim b-n birga o‘tirsang-u unga qalbing bog‘lanmasa, suhbating aslo qovushmasa, zinhor uning suhbatidan qochgin, yo‘qsa, azizlar ruhi seni kechirmaydi.

X.A.R.ning “Risolayi Azizon” asari mashhur. Hikmatlarga to‘la forscha she’rlar bitgan. “Tarixi nazm-u nasr” asari muallifi Said Nafisiyning qayd etishicha, X.A.R.ning “Mahbub ul-orifin” nomli asari bor. Unda muridlarga tavsiya qilingan o‘nta asos qoidalar tushuntirilgan. Ali Safiyning “Rashahot ayn ul-hayot”, Rizoqulixonning “Riyoz ul-orifin” kabi asarlarida X.A.R. she’rlari keltirilgan.

N. X.A.R.ning “qabri Xorazmda mashhurdir”, deydi. Buxoroning Qo‘rg‘on yaqinidagi Saribo‘ston qishlog‘idagi qabri qadamjodir. X.A.R.dan keyin sarhalqa silsilani uning yetuk xalifalaridan Muhammad Bobo Samosiy davom ettirgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

S.R.

XOJA MUHAMMAD BOBOYI SAMOSIY (r.t.) – mashhur shayx, buxorolik yetti pirlardan biri (taxm. XIII asrning ikkinchi yarmida Buxoroning Romitan tumanidagi Samos qishlog‘ida tug‘ilgan va shu joyda 1340/1354-y. vafot etgan.) X.M.B.S. Xoja Ali Romitaniyning xalifasi, “Silsilayi sharif”da 14-halqaning piri sifatida keladi. N. “N.M.”da yozishicha, X.M.B.S. Bahouddin Naqshband tug‘ilishini va uning qishlog‘i Qasri Hinduvon Qasri Orifon bo‘lishidan bashorat beradi. Bahouddinning bobosi uch kunlik chaqaloqni X.M.B.S. huzuriga olib borganda u zot chaqaloqni ma’naviy farzandlikka qabul qilib, shogirdi Mir Kulolga Bahouddin tarbiyasi bilan jiddiy shug‘ullanishni topshirgan.

X.M.B.S. to‘rtta olim va fozil xalifa yetishtirgan: Xoja So‘fiy Suxoriy, Xoja Mahmud Sammosiy (o‘g‘li), Mavlono Donishmand Ali, Xoja Sayyid Amir Kulol. X.M.B.S. o‘zidan keyin shayxlik qilishni Sayyid Amir Kulolga topshirgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

S.R.

XOJA SAYYID AMIR KULOL (r.t.) – mashhur shayx, buxorolik yetti pirlardan biri (taxm. 1288, Buxoro yaqinida (hozirgi Kogon tumani)gi Suxor qishlog‘i – 1371) Xoja Muhammad Boboyi Samosiyning xalifasi. Kulolchilik b-n shug‘ullanganligi sababli Mir Kulol nomi b-n mashhur. “Silsilayi Sharif”da o‘n beshinchi halqaning piri sifatida kelgan. Uning 114 xalifasi bo‘lib, Bahouddin Naqshband, Shamsuddin Kulol (Amir Temurning piri), Orif Deggaroniy eng mashhurlari hisoblangan. N. “Hazrat Xoja Bahoudding‘a suhbat nisbati, tariqat suluki, odobi ta’limi va zikr talqini alardindur”, deb aytadi.

X.S.A.K.ning Xoja Bahouddin Naqshband hazratlarining tarbiyasi b-n mashg‘ulligi tazkiralarda e’tirof etiladi. Naqshbandiya singari ulug‘ tariqatning yuzaga kelishida X.S.A.K. alohida o‘rni borligini “N.M.”da N. alohida ta’kidlaydi: “Dedilarki, har ne tarbiya bobida men sening haqingda ko‘rguzubmen sen farzand Bahouddin bobida ko‘rgizgil! Andoq qildim va ishorat o‘z ko‘ksiga qilib dediki, bu emchakni sizing uchun quruttum va sizing ruhoniyatingiz qushi bashariyat bayzasidin chiqdi. Ammo sizing himmatingiz shahbozi balandparvoz tushubdur. Emdi ijozattur”.

X.S.A.K. o‘zidan keyin tariqat ijozatini o‘g‘li Amir Hamza, xalifalari Mavlono Orif Deggaroniy, Shayx Yodgor Kunsuruniy, Shayx Jamoliddin Dahistoniy, Shamsiddin Kulol va Bahouddin Naqshband hazratlariga topshirgan. Sayyid Amir Kuloldan keyin sarhalqa silsilani Xoja Bahouddin Naqshband davom ettirgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Мавлоно Шаҳобиддин. Мақомоти Амир Кулол. Бухоро, 1909; Озод МўЪмин Хўжанинг “Ҳазрат Саййид Амир Кулол”. – Т., 2012.*

S.R.

XOJA BAHOUDDIN NAQSHBAND (q.t.s.) – islom olamida ma’lum-u mashhur pir, naqshbandiya tariqatining asoschisi. Bahouddin Naqshband, Muhammad ibn Muhammad Bahouddin Naqshband Buxoriy (ko‘proq Bahouddin yoki Xoja Bahouddin Balogardon, Xo‘jayi Buzruk, Shohi Naqshband nomlari bilan mashhur) (1318-1389) − Buxoro viloyati hozirgi Kogon tumanidagi Qasri Hinduvon qishlog‘ida tug‘ilib, shu yerda vafot etadi. Bu qishloq keyinchalik X.B.N. sharafiga “Qasri orifon” deb atalgan. Voqean, X.B.N.ning bobosi ham Samosiyning muridi bo‘lib, uning tarbiyasida muhim rol o‘ynagan. Aynan bobosining sa’y-harakati b-n boshlang‘ich ta’limni oila muhitida olib, yetti yoshidayoq Qur’oni Karimni yod bilgan. X.B.N. ko‘plab tirik shayxlar suhbatiga yetgan bo‘lsada, vafot etgan ulug‘ valiylar ruhoniyatlaridan fayz olib, kamolga erishgan. Uvays Qaraniy, Hakim Termiziy kabi mashoyixlar qatori, Xojayi Jahon – Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy ruhoniyatidan fayz olgan, u kishining tariqati va sayr-u

sulukiga taalluqli nimaiki bo‘lsa, o‘zlashtirgan, davom ettirgan. Muhammad Bobo Samosiy va Amir Kulolning ta’lim va tavsiyalarini uyg‘unlashtirib, tariqatga jahonshumul asos va qoidalar kiritgan. O‘tgan ulug‘ mashoyixlar ruhoniyatidan fayz olib yetishgani u-n “uvaysiy” deyiladi. X.B.N. Buxorodagi qabristonlarni tez-tez ziyorat qilib turardi. N. “N.M.” asarida X.B.N.ning “oti Muhammad bin Muhammad Buxoriydir. Xoja Muhammad Boboyi Samosiy u kishini farzandliqqa qabul qilgan, zohir yuzasidan tariqat odobining ta’limini Amir Sayyid Kuloldan olgan, ammo haqiqat yuzasidan uvaysiydurlar va tarbiyat Hazrat Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy (q.s.) ruhidin topibdurlar”, – deb yozadi. Uvays Qaraniy, Mansur Halloj va Hakim Termiziylar ruhlari ham unga tavajjuh qilgani aytiladi. U bejiz o‘zini Hakim Termiziy ta’limotining davomchisi hisoblamagan. Unga Xojayi Azizon nomi b-n mashhur bo‘lgan xojagon silsilasining 4-piri bo‘lmish Xoja Ali Romitaniyning tabarruk kulohi ham yetishgani va shundan so‘ng uning holida o‘zgarish sodir bo‘lgani naql qilinadi. Shuning u-n ham u o‘zini Azizonning muridi hisoblagan. U yana Amir Kulolning xalifasi Mavlono Orif Deggaroniy hamda Xalil ota, Qusam shayx kabi yassaviya shayxlaridan saboq olgan. X.B.N.ga Abduxoliq G‘ijduvoniy ruhoniyat olamida ko‘p nasihatlar qilish b-n birga sulukning boshida, o‘rtasida va oxirida kerakli bo‘lgan so‘zlarni gapirgan. Shuningdek, N. X.B.N.ning yassaviy shayxlari (turk mashoyixlari)dan Qusam Shayxning uch oy xizmatini qilgani, “turk mashoyixlarining kibori” Hakim ota (Sulaymon Boqirg‘oniy) tushiga kirib, uni Xalil ota xizmatiga yo‘llagani va X.B.N. olti yilga yaqin uning xizmatini qilib, sayr-u sulukini kamolga yetkazgani haqida ma’lumot beradi.

N. “X.” asarining dastlabki dostoni “H.A.”-da X.B.N. (q.s.) madhidakim..”, deb boshlanadigan faslini X.B.N. ta’rifiga bag‘ishlab, 31 marta “naqsh” so‘zini turli-tuman ma’nolarda qo‘llaydi.

Muncha ajab naqsh bila arjumand,
Kimsa emas g‘ayri shahi naqsh band.

Maz.: Shoh Naqshbanddan boshqa kishi bunchalar naqsh b-n ulug‘ bo‘lgan emas.

Shoir “L.T.” dostonida ham X.B.N. haqidagi hikoyani keltiradi va uning it haqidagi aytgan gaplarini mukammal foniylik timsoli sifatida talqin etadi. Shoir yozishicha, “Xojai oliy sifoti arjumand, Shah bahoul – haq vad-din Naqshband” o‘z vujudini nimaga qiyos qilsa ham undan o‘zini kam bilardi. Nogahon X.B.N.ning ko‘zi murdor bir itga tushadi va o‘zini unga tenglashtiradi. Shunda ko‘zidan yosh oqib deydi:

Dedi: “Ul ahli vafodur, men-emon,
O‘zni oning birla emdi teng demon.

Ul Xudovandig‘a qilmas juz vafo,
Lek menda zohir o‘lmay juz jafo.”

Sohibnazar (Bahouddin Naqshband) bunday xayollarga borib turgandan keyin it uning oldidan o‘tib ketadi. U zot tuprog‘da it ayog‘ining izini ko‘radi. “Men ortiqmanmi yo bu iz?”, degan xayolga boradi va darhol “Ey insofsiz, U iz vafo ahli ayog‘idan nishon, sen esang etagingni sudrab vafosizlik sari borasan”, deydi va egilib, itning iziga ko‘zini surtadi. Shoir qissadan xulosa chiqarib: Ahli Haq shunday yo‘llar b-n vujudlarini inkor etadilar, borliqlarini bu kabi sabablar ila nobud qiladilar. Shu yo‘llar vositasida fano jomini ichib o‘zlaridan asar qolmagandan keyin Haqqa vosil bo‘ladilar, deydi:

Haq vujudidin baqoye topmayin,
Jomi vahdatda liqoye topmayin.

Chun fano xaylig‘a doxil bo‘ldilar,
Boqiyi Mutlaqqa vosil bo‘ldilar.

N. X.B.N.ga ayricha hurmat va ehtirom b-n qaragan. Uning tariqatini mukammal va martabasini yuksak deb hisoblagan. N. ning keltirishicha, Mavlono Jaloluddin Xolidiy hazratlaridan Hazrat Xoja Bahouddinning suluk va tariqining nisbati mutaaxxir (keyingi) shayxlardan qaysi pirning

tariqiga (tariqati, suluk yo‘li)ga munosabati (aloqadorligi, o‘xshashligi) bor, deb so‘raganlarida, u kishi shunday javob beribdilar: “So‘z mutaqaddimin (oldin o‘tgan) mashoyixdin deng va ikki yuz yildin ortuqdurki, bu nav’ osori valoyat (valiylik asari) zuhuriki, hazrat Xoja Hazratlarig‘a Tengri taolo inoyatidin voqe’ bo‘lubdur. Tariqat mashoyixig‘a mutaaxxirlardin (keyingilardan) hech kimga bo‘lmaydur”. N. X.B.N.ni fano va baqoga erishgan yetuk avliyo va komil orif sifatida e’tirof qilgan.

Manbalarda Bahouddin Naqshbandning “Qudsiya” (“Ilohiy so‘zlar”), “Avrod” (“Virdlar” – duolar, zikrlar), “Avrodi sag‘ir” (“Kichik virdlar”), “Voridot” (“Ko‘ngil kechinmalari”), “Daloyil ul-oshiqin” (“Oshiqlik dalili”), “Hayotnoma” kabi tasavvufga oid risolalari va ruboiylari bo‘lganligi haqida ma’lumot beriladi.

X.B.N. ham tariqat va she’riyatni o‘zaro omuxta qilgan shayx-shoirlardan bo‘lib, turli manbalar, tazkira va manoqiblarda unga nisbat berilgan qit’a, ruboiy va baytlarga duch kelamiz. Xususan, 1997-y.da Lohur (Pokiston)da Muhammad Sodiq Qasuriy shayx-shoirning 137 ta ruboiysini sharhlari b-n birga e’lon qilgan. Bu ruboiylar E.Ochilov tomonidan tarjima qilinib, alohida kitob holida so‘zboshi va izohlar b-n nashr etildi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Рубоиёти Нақшбанд. – Лоҳур, 1997; Фахриддин Али Сафий. Рашаҳоту айнил-ҳаёт. – Т., 2004; Necdat Tosun. Bahaeddin Nakshbend. – Istanbul, 2002; Дурдона (Мир Кулол ва Шоҳи Нақшбанд мақоматлари). – Т., 1993; Ёқубжон Исҳоқов. Нақшбандия таълимоти ва Ўзбек адабиёти. – Т., 2002; Абул Муҳсин Муҳаммад Боқир ибн Муҳаммад Али. Баҳоуддин Балогардон. – Т., 1993; Султонмурод Олим. Нақшбанд ва Навоий. – Т., 1996; 2009; Садриддин Салим Бухорий. Ҳазрат Баҳоуддин Нақшбанд. – Т., 2007. Сайфуллоҳ С. Ҳазрати Нақшбанд рубоийлари. – Т., 2009; Баҳоуддин Нақшбанд. Рубоийлар (Э.Очилов тарж.). – Т., 2022. Амир Камолиддин Ҳусайн Гозургоҳий. Мажолис ул-ушшоқ. – Теҳрон, 1998; Олим С. Нақшбанд ва Навоий. – Т., 1996; Шарафуддин Роқимий. Тарихи томм (Ҳ.Бобобеков ва Н.Норқулов тарж.). – Т., 1998; Султон И. Баҳоуддин Нақшбанд абадияти. – Т., 1994; Ислом. Энциклопедия. – Т., 2004; Сайфуллоҳ С. Етти пир (Дунё муршидлари). – Т., 2019; Сайфуллоҳ С. Буюклар ҳалқаси (Олтин силсила валийлари). – Т., 2011; Раҳимов К. Хожагон-нақшбандия тариқати ва етти пир. – Т., 2020; Наврўзова Г., Зоиров Э. Бухорои шарифнинг етти пири. – Т., 2018; Очилов Э. Тариқат ва шеърият // Баҳоуддин Нақшбанд. Рубоийлар (Э.Очилов тарж.). – Т., 2022.*

S.R., E.O.

XOJA MUHAMMAD PORSO (r.t.) – Xoja Bahouddin Naqshbandning yetuk xalifalaridan. N. u kishining to‘liq nomini “Muhammad bin Muhammad bin Mahmud Hofiz Buxoriy” deb keltiradi. (1345, Buxoro – 1419, Madina). X.M.P. Buxorodagi madrasalarda tahsil olib, Qur’on va hadislarni, kalom ilmini chuqur o‘rgangan. Bahouddin Naqshband uni shogirdlikka qabul qilib, “porso” (taqvodor, dindor, ma’sum) taxallusini bergan. Naqshband vafotidan so‘ng, uning o‘rniga tariqatga rahbarlik qilish salohiyatiga ega bo‘lsa-da, asosiy xalifalikni Naqshbandning boshqa yetuk shogirdi Alouddin Attorga topshirgan.

N. “N.M.” asarida X.M.P.ning zikriga alohida ehtirom ko‘rsatib, batafsil to‘xtalgan. N.ning yozishicha, Bahouddin Naqshband umrining oxirgi paytlari kasal bo‘lib yotganida muridlar davrasida X.M.P.ni quyidagicha ta’riflaydi: “... maqsud bizing zuhurimizdin oning vujudidur va anga ikkalasi tariyq bilaki, jazba va suluk bo‘lg‘ay, tarbiyat qilibman. Agar mashg‘ulluq qilsa, olam ondin munavvar bo‘lur. Yana bir mahalda burx sifotin mavhibat nazari bila alarg‘a karomat qildilar va Hazrat-Mahdum n.m.n. “Na-

fahot ul-uns”da bitibdurlarki, burx sifoti “Qut ul-qulub” kitobida mazkurdur va yana bir mahal mavhibat nazari bila alarg‘a nafasni bag‘ishladilarki, har ne alar desalar ul bo‘lg‘ay va yana bir mahalda dedilarki, har ne ul desa Haq taolo oni qilur. Hadisi sahih hukmi bilaki: “Allohning bandalari ichida shundaylari borki, agar Allohga qasam ichsalar, Haq qasamlarini rost keltiradi” dermanki, de, ul demas. Va yana bir mahalda alarg‘a xufya zikri buyurdilar va ijozat berdilar amalig‘a ul mujib bilaki, tariqat odobining daqoyiq-u haqoyiqidin ulcha bilur va oning ta’limidin, bulardan tashqari benihoyat iltifotlari bor...”.

X.M.P. o‘sha davrdagi siyosiy jarayonlarda ham faol ishtirok etgan. Ali Safiyning “Rashahot” asarida X.M.P.ning o‘sha davrdagi siyosiy voqealarga ham aloqador bo‘lgani haqida ma’lumot keltirilgan. Uning faoliyatidan Amir Temurning farzandi Muhammad Jahongirning o‘g‘li Xalil Mirzo, shuningdek, Xuroson Shohi Shohrux Mirzo ham yaxshi xabardor bo‘lgan. Porso Shohrux Mirzo b-n turli masalalar bo‘yicha yozishmalar olib borganligi va Ulug‘bek saroyi (Samarqand va Buxoro)dagi ilmiy munozaralarda qatnashganligi manbalarda qayd etilgan.

Tasavvuf va islom tarixiga oid “Risolayi qudsiya” (“Xoja Bahouddinning qudsiy kalimalari haqidagi risola”), “E’tiqod” (“E’tiqod haqida risola”), “Tahqiqot” (“Tasavvuf istilohlari bo‘yicha risola”), “Tafsiri Qur’on” (“Qur’on tafsiri”), (“Karomatlar haqida risola”), “Muxtasari tarixi Makka” (“Makka shahrining qisqacha tarixi”), “Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband” (“Xoja Bahouddin Naqshband maqomoti”), “Haftodu du firqa” (“Yetmish ikki firqa”) kabi 20 dan ortiq asar yozgan. Shariat va tariqat masalalariga bag‘ishlangan va unga katta shuhrat keltirgan asari “Fasl ul-xitob bivusulil ahbob” (“Do‘stlar visoliga etishda oq ila qorani ajratuvchi kitob”) bo‘lib, u o‘rta asrlarda islom ulamolari u-n qo‘llanma vazifasini o‘tagan. Asarda islomda bahsli sanalgan 500 ga yaqin masalalarga ahli sunnat val jamoat nuqtayi nazaridan javob berilgan. N. “Xam.M.”da Jomiy huzurida o‘qigan kitoblari qatori “Risolayi qudsiya” ni ham tilga olgan. “H.A.”da esa X.M.P. ning o‘g‘li b-n hajga borgani va haj ahli undan duo so‘rashganida, o‘g‘li Xoja Abu Nasrning duo qilgani haqidagi ibratli bir hikoyani keltirib o‘tgan.

X.M.P. haqida risola va xotiralar ham yozilgan. Jumladan, Abdurahmon Jomiy “Risolayi suxanoni Xoja Porso” nomli asar yozgan. Unda Jomiy X.M.P.ning tasavvuf va naqshbandiya tariqatiga oid hikmatli so‘zlarini keltirgan va izohlagan. N.ning “Xam.M.” asarida (uchinchi maqolatida) Jomiyning X.M.P. ga bag‘ishlangan asari nomi keltirilgan.

X.M.P. ikki marta haj safarini ado etgan. Dastlab Bahouddin Naqshband b-n, keyin 1419-y. Buxorodan Termiz, Balx va Hirot orqali Nishopurga, undan esa Madinaga kirib boradi. N. “N.M.” tazkirasida X.M.P.ning keyingi haj safari haqida batafsil ma’lumot beradi. Aytilishicha, Makkada sog‘-salomat haj arkonlarin bajargan. Makkadan chiqayotganida, Junayd Bag‘dodiy u b-n uchrashib, unga hajning qabul bo‘lganidan bashorat bergan. Madinaga yo‘l olishidan oldin kasallikka chalingan. Va oyning yigirma uchida chorshanba kuni Madinaga yetib borgan va Hazrat Risolat (s.a.v.)dan bashorat topgan, payshanba kuni vafot etgan. U kishini Baqi’ qabristoniga amir ul-mo‘minin Abbos (r.a.)ning muborak qabrining yoniga dafn etishgan. “Shayx Zaynuddin Xavofiy hazratlari Misrdin bir oq tosh” yo‘ndirib kelib u kishining qabri boshiga qo‘ygan**.** “Rashahot” muallifi Ali Safiyning ma’lumotiga ko‘ra, X.M.P. vafot etganida, taxminan, yetmish uch yoshlar orasida bo‘lgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамсат ул-мутаҳаййирин. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Муҳаммад Боқир. Баҳоуддин Балогардон. – Т., 1993; Маънавият юлдузлари. – Т., 2001; Фахруддин Али Сафий. Рашаҳот. (2-нашри) – Т., 2004.*

S.R.

XOJA ALOUDDIN ATTOR (q.s.) – Muhammad ibn Muhammad al-Buxoriy (t.y.n – 1399). Bahouddin Naqshbandning xalifasi va kuyovi. Silsilayi sharifning o‘n yettinchi piri hisoblanadi. N. ma’lumotiga ko‘ra, X.A.A.ning ismi Muhammad binni Muhammad Buxoriydir. Tazkirada N. “Nafahot ul-uns”dagi ma’lumotlarga tayangani va ko‘pgina ma’lumotlarni ushbu asardan o‘qish mumkinligini aytarkan, shunday ma’lumotni keltiradi: “haqiqatni aniqlovchi olimlarning rahbari, diqqat b-n tekshiruvchi ulug‘larning peshvosi, yuksak asarlar va fasohatli tadqiqotlarning muallifi, nasabi ulug‘ Sayyid Jurjoniy, unga Allohning rahmati bo‘lsin!”ki, inhirot tavfiqi Xoja Alouddin as’hobi sulukida topqondur va niyoz-u ixlos alarning xodimlar va mulozimlarig‘a paydo qilg‘ondur”. Hazrat Bahouddinning eng yaqin suhbatdoshlaridan. Bahouddin Naqshband hazratlari hayotlik paytidayoq unga ko‘p toliblarning tarbiyasini ishonib topshirgan va: “Alouddin bizning og‘irimizni yengil qildi, unda shubhasiz “tom va komil suratda” avliyolik alomatlari bilinmoqda”, – degan ekan. A.A. madrasani tugatmasdanoq Naqshband sulukiga kirgan, bir umr piri yonida bo‘lgan. Naqshbandning boshqa bir xalifasi – Xoja Muhammad Porso X.A.A. iltimosiga ko‘ra “Risolayi qudsiya” (“Xoja Bahouddinning qudsiy kalimalari”) kitobini bitgan va unda X.A.A.ning o‘z piri haqidagi o‘nlab rivoyat va xotiralarini keltirgan. N. X.A.A.ning yaxshi suhbati natijasida ko‘p toliblar nuqsonlar poygohidan, Allohga yaqinlik darajasiga chiqqanlar va mukammal martabaga etishganlar, deydi. Shuningdek, N.ning “…Borlar der ermishlarki, to men Shayx Zaynuddin Aliyi Kulol suhbatig‘a yetmadim, rafzdin qutulmadim va to Xoja Attor majlisig‘a ulanmadim, Tengrini tanimadim” singari ma’lumotlari xojaning ma’naviy rutbasini, zamondoshlarining unga hurmatini belgilaydi.

X.A.A. ustozi kabi hanafiy mazhabida bo‘lgan va bir muddat Xorazmda ham irshod ishlari b-n shug‘ullangan, Bahouddin Naqshbandning sayr-u sulukini davom ettirgan holda, unga yangi usullar ham ilova qilgan. U o‘zining yo‘nalishida muroqaba usuliga alohida e’tibor beradi. X.A.A. ning fikricha, muroqaba usuli nafy isbot usulidan afzal va jazbaga yanada yaqinroqdir. Muroqaba holiga ko‘nikma hosil qilgach, zehn doimo bir nuqtada jamlanadi va natijada ko‘ngillarni fath etish maqomiga erishiladi. X.A.A. bu usul orqali yuzaga kelgan jazba b-n toliblarni tezda qurbat maqomiga erishtirish mumkin, degan fikrni ilgari suradi. Shuningdek, u ustozi kabi suhbat usuliga katta ahamiyat berardi.

Vafotidan oldin X.A.A. yaqin xalifasi Ya’qub Charxiyga yaqindagilarni suhbat b-n, uzoqdagilarni esa kitob vositasida tarbiyalash lozimligini vasiyat qilib, irshod etish vazifasini topshiradi.

Alouddin Attor Hasan Attor (o‘g‘li), Nizomiddin Xomush, Ya’qub Charxiy, Husomiddin Porso Balxiy, Mavlono Abu Said, Abdulloh Imomiy Isfahoniy, Shayx Umar Motrudiy, Mavlono Ahmad Maska, Sayyid Sharif Jurjoniy kabi xalifalar yetishtirgan.

A.A.dan so‘ng sarhalqa silsilani uning xalifasi Mavlono Ya’qub Charxiy davom ettirgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

S.R.

MAVLONO YA’QUB CHARXIY (q.t.s.) – Ya’qub Charxiy Usmon bin Muhammad (taxm. 1363, G‘azna, Afg‘oniston – 1447, Chag‘oniyon hoz. Denov) G‘aznaga qarashli Charx qishlog‘ida tug‘ilgani u-n Charxiy nisbasini olgan. Silsilayi sharifning o‘n sakkizinchi piridir. M.Y.Ch o‘z yurtida boshlang‘ich ta’lim olgandan keyin (1380). Hirotdan Buxoroga kelib Bahoudin Naqshband (1318–1389)ga murid bo‘ladi. Lekin Bahouddin Naqshband M.Y.Ch. ni kuyovi Alouddin Attor tarbiyasiga topshiradi. N. yozishicha, Hazrat Naqshband vafotidan so‘ngra M.Y.Ch. Badaxshong‘a ketadi va Xoja Alouddin “Chag‘oniyong‘a kelib, mutavattin” bo‘ladi. Alouddin Attor M.Y.Ch. ga odam yuborib,” Hazrat Xojayi buzurkvor (Bahovaddin

Naqshband) ishorat qilg‘an so‘zni izhor” qiladi va M.Y.Ch. to Alouddin Attor vafot etguncha u kishining xizmatida bo‘ladi va ustozi vafotidan so‘ng to umrining oxirigacha Halg‘atu (Dushanbe yaqinida) qishlog‘ida yashaydi. M.Y.Ch faqat komil murshid emas, balki yetuk olim hamdir. U kishidan bizga tasavvuf, fiqh, tafsir va davlatchilikka oid asarlar meros bo‘lib qolgan. U o‘z hayoti davomida 10 ga yaqin risola yozgani ma’lum, lekin bizgacha 7 ta asari yetib kelgan. Shulardan 4 tasi tasavvufga, 1 tasi fiqhga, 1 tasi tafsirga, 1 tasi davlatchilikka oiddir. Ular quyidagilardan iborat. “Risolayi qudsiya” (“Qudsiy kalimalar haqida risola”), “Risolayi abdoliya” (“Abdollar haqida risola”), “Sharhi asmoulloh” (“Alloh ismlarining sharhi”), “Risolayi unsiya” (“Do‘stlik haqida risola”), “Tafsiri Charxiy” (“Charxiy tafsiri”), “Kitob ul-faroiz” (“Meros taqsimi haqida kitob”), “Risola dar manoqib va aqoyid” (“Manoqib va aqoyid haqida kitob”).

M.Y.Ch hayoti va ilmiy faoliyati haqida M.Razzoqova 2001-y.da “Ya’qub Charxiyning ilmiy merosi va uning naqshbandiya tariqati rivojida tutgan o‘rni (XIV–XV)” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

M.Y.Ch.dan keyin sarhalqa silsilani yetuk xalifalaridan biri Xoja Ahrori Vali davom ettiradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Мавлоно Нуриддин Абдураҳмони Жомий. Нафаҳот ул-унс мин ҳазарот-ил-қудс. – Душанбе, 2013; Фахруддин Али Сафий. Рашаҳот; Ислом. Энциклопедия. – Т., 2004; Буюк сиймолар, алломалар. 2-китоб. – Т., 1996; Раззоқова М. Мавлоно Яъқуб Чархий. – Т., 2013; Донишмандлар туҳфаси. – Т., 2009.*

E.O.

XOJA UBAYDULLOH AHROR (q.s.), (taxallusi; asl ismi Ubaydulloh; 1404–1490) – hozirgi Toshkent viloyati Bog‘iston qishlog‘ida tug‘ilgan. Uning bolalik va yoshlik davri Toshkentda o‘tgan. Shajarasi ona tarafidan Shayx Xovand Tahurga borib yetadi. Bu haqda N. yozadi: “Alarning mavlidi Toshkandur va otalari darvesh kishi ermish va ona tarafidin hamonoki, Shayxi Tahurki, ul viloyatda mutaayyin shayx ermish, anga yetarlar” X.U.A. Samarqand madrasalarida tahsil olgan. N. ta’kidlashicha, Jomiy “Nafahot ul-uns” asariga o‘z davrida tirik bo‘lgan shayxlardan faqat X.U.A.ni kiritgan.

N. “N.M.”da yozishicha, X.U.A. tasavvufdagi ilm va tajribasini orttirish maqsadida “Xuroson mashoyixidin Hazrat Mirsayid Qosim Anvor, Shayx Bahouddin Umar, Shayx Zaynuddin Xavofiy, Mavlono Muhammad Asad va Mavlono Sa’duddin Koshg‘ariy bilan uchrashgan va Movarounnahr mashoyixlaridin Xoja Muhammad Porso, Xoja Abu Nasr, Mavlono Nizomuddin Xomush bilan suhbat qilgan. Mavlono Ya’qub Charxiy (q.s.) din irshod va tarbiyat topgan”. X.U.A. Bahouddin Naqshband ta’limotining davomchisi sifatida oddiy odamlar, ruhoniylar va podsholar o‘rtasida katta obro‘ga ega bo‘lgan. Haqiqiy valiy bo‘lgani u-n hamma u kishini Xoja Ahrori Vali deb atagan. Ayni vaqtda, dehqonchilik va tijorat ishlari b-n shug‘ullangan va ko‘p mol-mulkka ega bo‘lib, mamlakatning ichki va tashqi siyosiy hayotida muhim rol o‘ynagan.

X.U.A. qalamiga mansub uch risola – “Faqarot ul-orifin” (“Oriflar so‘zlaridan parchalar”), “Volidiya”, “Havroiyya” bizgacha yetib kelgan. X.U.A. naqshbandiylikning murshidi sifatida shuhrat qozonib, o‘z davrining ijtimoiy, falsafiy, ma’naviy hayotida muhim o‘rin tutdi. Jomiy, Navoiy, Bobur X.U.A..ni o‘zlariga ma’naviy pir – ustoz deb bilganlar, unga bag‘ishlab dostonlar bitishgan, asarlarini o‘zbek tiliga o‘garishgan. X.U.A. Samarqandda vafot etgan.

X.U.A. Muhammad Zohid, Muhammad Abdulloh Xojagiy (o‘g‘li), Muhammad Qozi kabi xalifalariga shayxlik ijozatini bergan, Mir Abdulavval, Faxriddin Ali ibn Husayn, Mavlono Shayx, Sayyid Ali Kurdiy Maqtul, Ismoil Shirvoniy Mavlonozoda O‘troriy, Isoyi Fozil Buxoriy, Shayx Axto kabi ilg‘or muridlarni tarbiyalab

kamolga yetkazgan. Sarhalqa silsilani xalifasi Muhammad Zohid Vaxshivoriy davom ettirgan.

N. “H.A.” dostonida Bahouddin Naqshbandning ta’riflari tugagandan keyin X.A.V. madhi boshlanadi. N. bu ulug‘ zotni Hazrat Naqshbandga haqiqiy “xalafi mutlaq” ya’ni o‘rinbosar, izdosh deb biladi va uni ta’rif – tavsif etadi.

Ulki bu ofoq ichida toq erur,
Toq nekim, murshidi ofoq erur.

Charxi nigun dargahida xokro‘b,
Balki jabini bila xoshokro‘b.

Yuz qo‘yubon qullug‘ig‘a shohlar,
Bazmida bexud o‘lub ogohlar,

N. she’r oxirida Xudoga iltijo qilib, X.U.A. ruhoniyatidan madad yetishini so‘raydi:

Himmatidin bizni ham etsun Xudoy,
Faqr yo‘lida g‘ani, imong‘a boy.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

E.O.

MAVLONO SA’DUDDIN KOSHG‘ARIY – Hirotning mashhur shayxlaridan, (vafoti, 1456) Jomiy uning qiziga uylangan. N. “N.M.”da yozishicha, M.S.K. boshda diniy ilmlarni puxta egallaydi, so‘ngra tasavvufga rag‘bati borligi uchun Nizomiddin Xomush suhbatlariga qatnashadi va unga murid tushib, shayxlik darajasiga erishadi. O‘z davrining shayxlaridan Zayniddin Xavofiy b-n ham muloqotlar qilib, undan ham tasavvuf sirlarini o‘rganadi. M.S.K. Xurosonda naqshbandiylik tariqatini yoyishda katta hissa qo‘shadi. N. “Xam.M.”da M.S.K.ni “qutbi tariqat va g‘avsi haqiqat” deya tilga oladi va o‘z davrida, “Naqshbandiya xojalari silsilasining” “komil va mukammil murshid”laridan bo‘lganini qayd etadi. M.S.K. qabri vafotidan keyin muqaddas ziyoratgohga aylangan. Shu bois bo‘lsa kerak, N. “M.N.”da keltirishicha, M.S.K.ning xalifasi Mavlono Burujiyning qabri o‘z pirining yonida bo‘lsa, Abdurahmon Jomiyning ukasi Mavlono Muhammad Jomiyning qabri M.S.K. sufasida, uning ayog‘i saridadir. Jomiy “Nafahot ul-uns”da M.S.K. b-n bog‘liq bir qator voqealar va karomotlarni naql qiladi. N.ham “Nasoyim ul-muhabbat” da ularni keltirib o‘tadi. M.S.K.dan keyin uning silsilasini Jomiy, Burujiy va boshqa xalifalari davom ettirgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Муҳаммад Боқир. Баҳоуддин Балогардон. – Т., 1993; Ёқубжон Исҳоқов. Нақшбандия таълимоти ва ўзбек адабиёти. – Т., 2002; Султонмурод Олим. Нақшбанд ва Навоий. – Т., 1966; Алибек Рустамий. Ҳазрати Навоийнинг эътиқоди. – Т., 2010; Ислом энциклопедияси. – Т., 2004; Маънавият юлдузлари. – Т.: 2001; Фахруддин Али Сафий, Рашаҳот (2-нашри). – Т., 2004; Ориф Усмон. Бухори шарифнинг етти пири. – Т., 2003; Сайфиддин Сайфуллоҳ. Буюклар ҳалқаси. – Т., 2011; Абдулҳай ибн Абдулфатҳ ал-Ҳусайний. Ҳазрати Хожа Аҳрори Вали насабномаси. – Т., 2004; Садриддин Салим Бухорий. Табаррук зиёратгоҳлар. – Т., 1993; Хожа Абдулхолиқ Ғиждувоний. – Т., 2003; Озод Мўъмин Хўжа. Ҳазрат Сайид Амир Кулол. – Т., 2012.*

E.O.

XOJU KIRMONIY (Taxallusi; to‘liq ismi: Abulato Kamoliddin Mahmud ibn Ali ibn Mahmud, 1270, Kirmon − 1354, Sheroz) − fors-tojik shoiri. Otasi Ali bin Mahmud Kirmon shahrining obro‘-e’tiborli kishilaridan bo‘lgan. Yoshligi ona shahrida o‘tib, unda she’r va adabiyotga havas juda erta uyg‘ongan. Til, adabiyot, falsafa, mantiq, ilohiyot, nujum, tarix, tasavvuf kabi o‘z davrining barcha asosiy ilmlarini jiddu jahd b-n o‘zlashtirgan. Xoju taxallusi b-n she’rlar yozib,

X.K. deb shuhrat qozongan. Ko‘ngliga sayr-u sayohat ishqi tushib, avval Sherozga yo‘l oladi. Kamolot kasb etish maqsadida shahar ulamo va fuzalolariga yaqinlashadi. Keyin Kozirunga ko‘chib o‘tib, mashhur tariqat piri Shayx Aminiddin Muhammad Koziruniyga qo‘l beradi. Qo‘li qisqaligiga qaramay, Shom, Bayt ul-muqaddas, Hijoz, Iroq, Bag‘dod, Jurun (Hurmuz va Abbos bandari yaqinidagi viloyat), Isfahon va Hamadon shaharlarida qiynalib yashaydi. Shu tariqa, 19 yillik musofiratdan so‘ng 1338–1339-yy.da tug‘ilgan yurtiga qaytadi.

X.K.dan qasida, g‘azal, qit’a, ruboiy, tarkibband, mustazod kabi janrdagi she’rlarni o‘z ichiga olgan mukammal devon va 6 masnaviy (doston) bizgacha yetib kelgan. Devoni “Sanoye’ ul-kamol” va “Badoye’ ul-jamol” deb ikki qismga ajratilgan. 932 ta g‘azali alohida kitob holida Kirmonda nashr etilgan. Masnaviylaridan Abulqosim Firdavsiy “Shohnoma”si ta’sirida yozilgan “Somnoma” vazir Abulfath Majduddin Mahmudga bag‘ishlangan. “Xamsa”si tarkibidagi “Humoy va Humoyun” dostoni Abusaid Bahodirga atalgan. Davlatshohning yozishicha, bu dostonda u so‘zning dodini bergan.

Ma’lumki, N.ning “L.M.” dostoni Xojuning “Gavharnoma”siga tatabbu’dir. Bu haqida uning o‘zi “yana chun “Layli va Majnun” vodisida ishqni po‘ya urub, Xoju himmati “Gavharnoma”sida nisorimga gavharlar yetkuruptur”, − deb yozgan edi “M.L.”da.

Qabri Sherozda muqaddas ziyoratgohlardan.

Ad.: *Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Газалиёти Хожу Кирмоний. – Кирмон, 1378 (ҳ-ш.); Девони ашъори Хожу Кирмоний. – Теҳрон. 1336 (ҳ.-ш.); Хожуи Кирмоний // Адабиёти форсу тожик дар асрҳои XII–XIV. – Душанбе, 1983; Рубоий ва рубоийсароён. – Теҳрон, 1994; Гулшани адаб. Жилд 2. – Душанбе, 1975; Очилов Э. Сўз сеҳргари (Сўзбоши) // Ҳофиз Шерзий. Ишқ гавҳари. – Т., 2006; Ғаниева С. Алишер Навоий ва Хожу Кирмоний // “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2013, 2-сон; Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар бўстони. – Т., 1983.*

E.O.

XOLID – N. muammolarida yashirin kelgan so‘z. N. yaratgan muammolar ham miqdor, ham sifatiga ko‘ra turkiy xalqlar she’riyatining alohida o‘zanini tashkil etadi. Uning “D.F.” va “R.M” asarlarida fors-tojikcha, “X.M” hamda boshqa asarlarida esa o‘zbek tilida yaratgan muammolari o‘rin olgan bo‘lib, ular turli mavzularga bag‘ishlangani b-n xarakterlidir. Qizig‘i shundaki, X. ismiga “D.F.”da 4 o‘rinda murojaat qilingan.

Forsiy 175-dastlabki muammo hisob va tashbeh qoidasi b-n yechiladi. Uning matni quyidagicha:

Nuqtayi mushkin zi oraz goh po‘shad mohi man,
Goh bikshoyad pai saydi dili gumrohi man.

Tarj.: Mening go‘zalim mushkli nuqtasini (xolini) dam yopadi, Dam mening gumroh dilimni ovlash u-n ochadi.

Muammoning yechimi: “Nuqtayi mushkin” – (xol) dan kinoyadir. “Saydi dil” iborasining dili, ya’ni o‘rta harfini ovlasa – Xolid ismi hosil bo‘ladi.

Hamchu aksi sunbuli tar bar zulole az xushiy
Zulf dar oinayi on ro‘ nigar bo sarkashiy.

Tarjimasi: Yoqimli zilol (toza) suvda ho‘l sunbul aksiga o‘xshagan, Yuzi oyinasidagi zulf (soch)ga sarkashlik bilan qara (Harflar oina ichida teskari ko‘rinadi).

Muammoning yechimi: “Zilol” – ning “le” – si “xushi” – dagidan bo‘lsa, bo‘ladi. U sarkashlik qilsa, bo‘ladi. Endi zulf, ya’ni harfi uning yuzida bo‘lsa, hosil bo‘ladi. Ishoraga ko‘ra uni oynada ko‘rsatsa – X. ismi hosil bo‘ladi.

Dono, ki laqab bahri dile memonad,
Xoro go‘yad dili turo gar donad.

Tarj.: Dil u-n laqab qo‘yuvchi dono (kishi) Agar sening dilingni bilsa, (tosh) deb aytadi.

Muammoning yechimi: Dono sening “Dil” – ingni agar bilsa, (yoki aylantirsa, “gar do nad” bo‘ladi va “Xo” – ni aytsa (“xo” ro go‘yad) – X. ismi hosil bo‘ladi.

Holi dil bingar, ki to gashta ba zulfat poybast,
Chun xudiy gar yobad,
az insof gardad zeri dast.

Tarj.: Dilning holiga qara, agar u zulfingga ulansa, O‘zini topgach, insofdan itoatkor bo‘ladi.

Muammoning yechimi: “Xol” – yor zulfi, ya’ni harfiga poybast bo‘lsa yoki ulansa, – X. ismi hosil bo‘ladi.

Shu ismga “N.Sh.” devonida ham o‘rin ajratilgan.

Nuqtayi mushkinki ul yuz uzra bo‘lmish jilvagar,
To hisobin anglasun el yuz yoshur, ey siymbar.

Bayt ma’nosida “o‘z hisobini yo‘qotib qo‘yish” xalq iborasi qo‘llanilgan. Yuzida mushkin xoli bor go‘zal ko‘ringanda, hamma o‘z hisobini yo‘qotib qo‘yadi. Kishilar es-hushlarini yig‘ib olishlari yoki o‘z hisoblarini topishlari u-n go‘zal yuz yashirinishi kerak. Bu shart muammo holida bajariladi. Muammo yechish qonun-qoidalari va talabiga ko‘ra, so‘zning arab imlosidagi ko‘rinishiga e’tibor beriladi: **دلاخ** So‘zini tashkil qiluvchi harflar ma’shuqaning qoshi, zulfi, burni-yu alifdek qomatiga ishora etadi va har bir a’zoning tengsiz nafis-nazokati birlashganda ham, qora xolingning go‘zalligicha emas, uni yashira ham olmaydi, unga teng ham kelolmaydi, deya N. lutf qiladi. Demak, yashirin ism hisob va tashbeh qoidasi bilan yechiladi: “Nuqtayi mushkin”dan maqsad “xol” لاخ dir. “To” ت hisobi abjad bo‘yicha 400 (to‘rt yuz) bo‘lib, bundan “yuz” so‘zi yashirilsa, “to‘rt” qoladi. u esa abjadda د harfi bo‘lib, mazkur لاخ ga qo‘shilsa, دلاخ ismi hosil bo‘ladi. “Mushkin” va “siymbar” lafzlari “oq” va “qora” mazmunlarini anglatishi b-n baytda o‘zaro tazod – zidlikni yuzaga keltirgan. “Xolid”dagi bir nuqta mushkin (qora) xolga ishora bo‘lib, siymbar – kumush (oq) badan ma’shuqaning husniga husn bo‘lib qo‘shilgani anglashiladi.

Darhaqiqat, N.ning bu tarixiy shaxsga bir necha o‘rinda murojaat qilishi tabiiydir. Chunki Islom tarixida sahoba Xolid ibn Valid mashhur bo‘lib, dinning keng masshtabda yoyilishida tengsiz harbiy jasorat ko‘rsatgan. Shoir temuriylar saltanatining mustahkamlanishini istab, shoh va shahzodalarni ogohlikka, o‘rnak olishga chaqirishda boshqa asarlarida bo‘lgani kabi mazkur janrdan ham unumli foydalangani ravshanlashadi.

N.ning boshqa asarlarida kuzatilganidek, hammaga ma’lum so‘zlarni ma’lum bir maqsadlar b-n go‘zal she’riy uslub va san’atlarda taqdim etish uning shaksiz yuksak badiiy san’atkorligiga ishoradir.

Ad.: *Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2011; Зоҳидов Л. Алишер Навоийнинг “Рисолаи муффадот” асари ва унинг муаммолари: Ф.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. – Т., 1970.*

S.R.

XOM – Nuh (a.s.)ning o‘rtanchi o‘g‘li. N.ning ma’lumot berishicha, ba’zilar X.ni payg‘ambar deganlar. Nuh (a.s.) unga Hind mamlakatlarini tayin qilib, u yerga yuborgan va X.ning avlodi u yurtda keng tarqalgan. Uning to‘qqiz o‘g‘li bo‘lgan: Hind, Sind, Nuba, Kan’on, Kush, Qibt, Barbar, Zix, Habash. Bu to‘qqiz kishining avlodi ko‘p bo‘lgan va “oralarida o‘n sekkiz lug‘at (til) paydo bo‘lgankim, biri boshqasining lug‘atin” (tilini) yaxshi tushunmagan. “Ba’zi debdurlarkim, bu jihatdin har lug‘at (til) ahli bir mulkka mutafarriq bo‘ldilar” (tarqaldilar). Xullas, X. avlodi u iqlimda ko‘paygan va turli tillar paydo bo‘lgan. Aytishlaricha, Buxtunnasr va Namrud har ikkalasi ham X.ning Kush otlig‘ o‘g‘lining naslidan bo‘lishgan.

Manbalarda keltirilishicha, Alloh taolo X. ning otasiga qilgan beadabligidan yuzini qoraytirgan va pushti kamaridan bo‘ladigan xalq ham qora ranglilardan bo‘lgan. X.ning urug‘idan hindular, habashiylar, zangilar tarqalgan.

N. “M.L.” asarida yozishicha, X.ning beadabligi uning tiliga ham ta’sir etgan va tilida shikastalik, g‘alizlik paydo bo‘lgan. Hind tilidagi nuqson va g‘alizlik, fasohat-u balog‘atdan xolilik o‘sha beadablik ta’siridan, degan rivoyatlar bor.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Носируддин Бурҳониддин Рабғузий. Қиссаси Рабғузий. – Т., 1991; Пайғамбарлар тарихи (Исломият тарихи). – Т., 2014.*

S.R.

XONDAMIR (taxallusi: G‘iyosiddin Muhammad bin Xoja Humomuddin bin Xoja Jaloliddin Muhammad bin Burhoniddin Muhammad Sheroziy (1476, Hirot − 1534, Dehli) − mashhur muarrix. Otasi Humomiddin Muhammad o‘z davrining o‘qimishli, fozil kishisi bo‘lib, Sulton Abusaidning o‘g‘li Sulton Mahmud Mirzoning vaziri, onasi esa mashhur muarrix Mirxondning qizi bo‘lgan. U tarix, adabiyot va inshoni mukammal egallab, zamonasining fozil kishilari qatoridan joy olgan. Tarixga qiziqqanidan bobosiga shogird tushib, uning ishlarini davom ettiradi − “Ravzat us-safo”ning oxirgi jildini nihoyasiga yetkazadi va o‘zi ham dongdor muarrix bo‘lib yetishadi. Yoshligidan o‘tkir zehni va keng bilimi tufayli N. e’tirofiga sazovor bo‘lib, uning kutubxonasiga mudirlik qilgan. N. uni muttasil kamolot kasb etishga rag‘batlantirib, moddiy va ma’naviy jihatdan hamisha qo‘llab-quvvatlab turgan. Homiysi vafotidan keyin bir muddat Balxda Badiuzzamon mirzo saroyida xizmat qiladi. Husayn Boyqaro vafotidan so‘ng Badiuzzamon mirzo b-n Hirotga qaytib, 1510-y. gacha shu yerda bo‘ladi. U Hirotning Muhammad Shayboniyxon (1507) va Ismoil Safaviy (1510) tomonidan istilo qilinishining jonli guvohiga aylandi. Safaviy hukmronligi davrida Xurosonda qahatchilik bo‘ldi. Shayboniylarning tez-tez uyushtirib turadigan talonchilik hujumlari ahvolni badtar og‘irlashtiradi. Shuning u-n X. 1514-y. Shimoliy Afg‘onistondagi Pusht qishlog‘iga ketib, adabiy-tarixiy ijod b-n shug‘ullanadi. Badiuzzamonning o‘g‘li Muhammad Zamon xizmatida bo‘ladi. 1528-y. Hindistonga − Bobur Mirzo huzuriga boradi. Bobur ham, keyin uning o‘g‘li Humoyun ham bu nuktadon muarrix b-n yaxshi munosabatda bo‘lishgan, ijod qilish u-n unga barcha sharoitni yaratib berishgan. X. ularning bir necha yurishlarida ishtirok etgan. “Humoyunnoma” asari u-n Humoyun tomonidan unga “Amir ul-muarrixin” unvoni berilgan. U Humoyun b-n birga navbatdagi harbiy yurishdan qaytib kelayotganida yo‘lda vafot etadi va vasiyatiga ko‘ra, Dehlidagi mashhur qabristonga − buyuk shoir Xusrav Dehlaviy yoniga dafn etiladi.

X. sermahsul olim bo‘lib, 13 ta asar yozgan. Bizgacha ulardan 8 tasi yetib kelgan: “Maosir ul-muluk” (“Podshohlarning zamondoshlari”), “Xulosat ul-axbor fi bayon ul-ahvol ul-axyor” (“Xayrli kishilar ahvoli xabarlarining xulosasi”), “Makorim ul-axloq” (“Yaxshi xulqlar”), “Dastur ul-vuzaro” (“Vazirlar uchun qo‘llanma”), “Nomayi nomiy” (“Atoqli nomalar”), “Inshoyi G‘iyosiy” (“G‘iyosiy asarlari”), “Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar” (“Bashar ahli siyratidan xabar beruvchi do‘st”), “Humoyunnoma”. Shuningdek, Mirxondning chala qolgan “Ravzat us-safo” (“Poklik bog‘i”) asarining oxirgi − 7-jildi. Yana 5 ta asarining nomi ma’lum bo‘lsa-da, o‘zi topilmagan: “Osor ul-muluk va-l-anbiyo”, “Axbor ul-axyor”, “Muntaxabi tarixi Vassof”, “Javohir ul-axbor”, “G‘aroyib ul-asror”. “Xulosat ul-axbor” va “Makorim ul-axloq” asarlarini bevosita homiysi va ustozi N.ga bag‘ishlab yozgan. Shuning u-n ham u ilmda N.ning tarjimayi holini yozgan ilk biograflardan hisoblanadi. Albatta, u shoir hayoti va faoliyatini yilma-yil, raqamlar asosida yoritmaydi, lekin shoirning inson va ijodkor sifatidagi

o‘ziga xos xususiyatlari, ish va ijod tartibi, odamlar b-n munosabati, mahorati qirralari, ustoz va shogirdlari, nozik zarofat va hazillari, amaldorlik faoliyati va raiyatga xizmatlari, ehsonlari va xayriya binolari va boshqalar xususida o‘zi ko‘rgan va eshitgan voqealar, aniq dalillar asosida yozish b-n N.ning buyuk zot sifatidagi betakror qiyofasini gavdalantiradi.

O‘z asarlariga Sharq xalqlari tarixini eng qadimgi davrlaridan boshlab yoritgani, Chingizxon va uning avlodlari faoliyati haqida keng ma’lumot bergani, temuriylar davlatining tashkil topishi, rivojlanishi va inqirozi, shayboniylarning tarix sahnasiga chiqishi, Boburning Hindistonda o‘z hukmronligini o‘rnatishi, Humoyunning uni mustahkamlash u-n kurashi voqealarini izchil tasvirlagani b-n jahon madaniyat ravnaqiga katta hissa qo‘shgan olimlar qatoridan munosib o‘rin egalladi.

N.ning ma’lumot berishicha, “salohiyatli yigit”,“tarix fanida mahorati bor” X. badiiy ijod b-n ham shug‘ullanib, Naqiy taxallusi ostida she’rlar yozgan. Bizgacha uning alohida she’rlar to‘plami yetib kelmagan, lekin tarixiy asarlari orasida keltirilgan ruboiy, qit’a, muammo va fardlari, masnaviylaridan parchalari va baytlari uning iste’dodli shoir bo‘lganligidan dalolat beradi. 1994-y. Tehronda chop etilgan “Ruboiynoma” kitobida ham X.ning 3 ta ruboiysi berilgan. U o‘z ruboiylarida Sharq she’riyati u-n an’anaviy bo‘lgan ishq, yor ta’rifi, hijron, oshiqlik mavzularida fikr yuritadi. Chunonchi, quyidagi ruboiysida hijronning oshiq ahvolini qanchalar tang qilgani, jigarini qon qilib, ko‘zlaridan oqizgani haqida yozadi:

Dardo, ki zi hajrat jigari man xun shud,
Xushi jigaram zi chashmi tar berun shud,
Dar orzo‘i tu joni man mahzun shud,
Dil peshi tu bud, holash, oyo, chun shud?

Tarj.: Afsuski, hajring tufayli jigarim qon bo‘lib, yoshli diydalarimdan oqdi. Vasling orzusida jonim g‘amgin bo‘ldi. Dil esa sening huzuringda edi, bilmaymanki, uning holi ne kechdi?

Mana bu ruboiy esa mahbubaning haddan ziyod go‘zalligi, u tufayli hammayoq muattar hidga chulg‘angani, oshiqning dil-u joni ham yayragani, lekin unga yetolmagani u-n dili kuyib, ko‘zlaridan gulob quyilganidan bahs etadi. Mahbuba gulday bo‘lsa, chor-atrofni xushbo‘y hidga to‘ldirsa, bu muattar hid dil-u joniga singgan oshiq ko‘zidan ham achchiq ko‘z yoshi emas, balki yoqimli hidi b-n dimog‘ni qitiqlovchi gulob to‘kilsa, ne ajab!

Ey gashta havoi ko‘i tu atrafshon,
Az nakhati xulqi tu muattar dilu jon.
Dar otashi hajri tu dilam so‘xt chu ud,
Gardid gulobi ashk az dida ravon.

Tarj.: Sening ko‘ying havosidan atrofga muattar hid taraladi. Xulqingning xushbo‘y hididan dil-u jon muattar. Hajring otashida dilim ud kabi kuydi, ko‘zlarimdan yosh gulobi shashqator bo‘ldi.

Oshiq dili ham ud − yonganida xushbo‘y hid taratadigan yog‘och kabi kuyadi. Ruboiyda ma’shuqa husni va xulqini ta’riflashda, oshiqning uning hajrida kuyib, yosh to‘kkanini tasvirlashda ham faqat go‘zal, dilga yoqadigan so‘z, timsol va tashbehlardan foydalanilgan.

P.Shamsiyev, B.Ahmedov, D. Yusupova, I. Bekjon kabi olimlar X.ning hayoti va faoliyati bo‘yicha u yoki bu darajada tadqiqot ishlarini olib borganlar. Mashhur muarrixning “Makorim ul-axloq” asari P.Shamsiyev tomonidan juz’iy qisqartirishlar b-n tarjima qilinib, bir necha marta nashr etilgan. Shuningdek, B.Ahmedov, I.Bekjonlar “Xulosat ul-axbor”, “Habib us-siyar”, “Dastur ul-vuzaro” asarlaridan parchalarni o‘zbek tiliga o‘girib e’lon qilganlar.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ғиёсиддин бинни Ҳумомиддин Хондамир. Макорим ул-ахлоқ (П.Шамсиев тарж.). – Т., 1948; Хондамир. “Хулосат ул-ахбор”дан. “Дастур ул-вузаро”дан. “Ҳабиб ус-сияр”дан*

(Б.Аҳмедов тарж.) // Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985; Ғиёсиддин бин Ҳумомиддин Хондамир. Буюклик хислати (“Ҳабиб ус-сияр”нинг Бобур ҳаёти ҳақидаги боблари); И.Бекжон тарж. – Т., 2011; Хондамир. Рубоийлар // Минг бир рубоий. – Т., 2009; Аҳмедов Б. Хондамир. – Т., 1965; Бекжон И. Кириш // Ғиёсиддин бин Ҳумомиддин Хондамир. Буюклик хислати. – Т., 2011.

Q.E.

XONIM SULTONBEGIM – Mo‘min Mirzoning onasi, Badiuzzamon Mirzoning katta xotini. Bu temuriy malika haqida manbalarda ma’lumotlar bitilgan. Mumtoz muarrix Xondamir “Habib us-siyar” asarida Mo‘min Mirzoning bevaqt o‘limi b-n bog‘liq tasvirda malikaning ayanchli ahvoli xususida shunday xabar bitgan: “... shahid bo‘lgan shahzodaning g‘amga cho‘mgan onasi Xonim Sultonbegim va uning bechora hamshirasi gardanlariga qora namat tashlab, ko‘ylaklarining yoqalarini pora-pora qilib, zor yig‘lab, faryod ko‘tarib, qiyomat alomatlarini paydo qildilar... O‘sha vaqtda shaharda turgan amir Sorbon Junayid marhumning jasadini yuvish va takfinlash b-n mashg‘ul bo‘ldi va o‘zining ajoyib madrasasiga dafn etdi, bir necha kun xatmi Qur’on qildirdi”.

Ad.: *Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1986.*

B.R.

XORAZM – qadimgi shahar va viloyat. Movarounnahrning shimoli-g‘arbida, Amudaryo quyi oqimining chap sohilida joylashgan bo‘lib, shimoliy va shimoli-sharqdan Qoraqalpog‘iston, janubiy va janubi-g‘arbdan turkmanlar b-n chegaradosh. X–XII asrlarda, Xorazmshohlar davrida, ayniqsa, rivojlangan. N. asarlarida ham bir necha o‘nlab o‘rinlarda X. toponimiga murojaat qilingan. X. jug‘rofiy nuqtayi nazardan Movarounnahr va Xuroson davlatlari oralig‘ida joylashgani u-n ham Temuriylar tarixida muhim o‘rin tutgan. Jumladan, N. “H.A.” dostonining 3-maqolatida sultonlar va ularning adolatidan bahs yuritib, 27-bobda Husayn Boyqaroning mardlik va adl tariqini ko‘rguzganini ibrat qilib ko‘rsatarkan, ma’lum bo‘ladiki, bu voqealar hali u taxtga o‘tirmagan vaqtlarida, Xorazmda yuz bergan.

Yuz, iki yuzcha kishi birla qazoq,
Gah eri Xorazm edi, gah Adoq.

Shuningdek, dostonning 43-bobida shoir Sulton Muhammad Xorazmshohning Imom Faxr Roziy b-n hammomda uchrashib qolib, imomning so‘zi tufayli takabburlikdan voz kechib, do‘stlashgani haqidagi ta’sirchan hikoyatda ham voqealar X. diyorida yuz bergani ayon bo‘ladi.

Qildi chu Xorazmni oromgoh.
Ko‘rmagiga kelmadi Xorazmshoh...
Ichsa kishi bo‘lg‘ay anga xokiroh,
Aytma Xorazmki, Xorazmshoh...

Ma’lumki, “S.S.” dostoni N. ijodida muhim o‘rin tutuvchi asarlardan sanaladi. Mazkur asar kompozitsiyasida ham X. atamasi diqqatni tortuvchi joy nomlaridan ekani ma’lum bo‘ladi. Zero, shoir shoh Bahromga Diloromning xabarini olib kelgan sayyohning 7-iqlimdan kelganini ta’kidlaydi. Demak, X. o‘lkasi dunyo xaritasida 7 iqlimning biri bo‘lib, tarixiy-siyosiy mavqeyi nihoyatda yuqori bo‘lgan:

“Menki, tushmish buyon guzor manga,
Mulki Xorazm erur diyor manga...”

Qildi Xorazm ahli istiqbol,
Fahm qilmoqqakim nedur ahvol.

Chun yiroq erdi kishvari Xorazm,
Qildilar ul taraf azimat jazm...

Xususan, voqealar tuguni ham X. diyorida maskan tutgan Diloromning topilishi b-n yechim topadi.

Ul taraf jazm qildi azm etmak,
Toki Xorazm haddig‘a etmak.

Kim: “Bu yanglig‘ xabar eshittuk jazm
Ki, bor ermish makoningiz Xorazm.

Yana Xorazm shahig‘a yozdi misol,
“Buki Xorazmdin bir illiq mol,

Xojag‘a zodi roh etkursun,
Xoja mahmilni bu taraf sursun”.

Chunki Xorazm shahig‘a etti misol,
Vajh berdi xizonadin filhol.

X. mil. av. asrlarda ham ijtimoiy-siyosiy nuqtayi nazardan muhim strategik markazlardan bo‘lgani “S.I.” dostonida qayd etiladi. Unda X. Iskandar tomonidan fath etilgan davlatlar qatorida alohida sanaladi. Chunonchi, shimoliy o‘lkalar fathiga kirishgan Iskandar ilk navbatda X.ga tavajjuh etadi.

Chu mulk olg‘ali da’bu xo‘ razm etib,
Tavajjuh bila fathi Xorazm etib.

Mazkur asarda Iskandarga qarshi jangga otlangan Doro qo‘shinlari safida dashti qipchoqliklar b-n birga oq libosda X.liklar ham saf tortgani diqqatimizni jalb etadi.

Bu kofurgun saf aro razm eli,
Kelib Dashti Qifchoqu Xorazm eli.

N. ranglar jilosini va asarga ko‘rsatadigan ta’sirini teran his qilgan holda, bu jihatni dostonlariga mahorat b-n singdiradi. U “S.S.” dostonida Diloromning daragi X.dan chiqqach, mazkur o‘lka tavsifida oq rang va uning ma’nodoshlariga urg‘u berganidek, “S.I.”da ham Doro qo‘shiniga kelib qo‘shilgan X. askarlarini oq liboslarda tasvirlaydi.

Umuman olganda, “X.” dostonlarida X. istilohi muayyan badiiy-estetik, adabiy-tarixiy vazifa bajargan hamda beshlikning umumiy kompozitsion butunligini ta’minlashga xizmat qilgan.

X. diyorida azaldan ilm-fan taraqqiy qilganini bu yerda yetishib chiqqan dunyoga mashhur allomalar-u avliyolar, shoir-u davlat arboblarining nomi tasdiqlaydi. “L.T.” dostonida esa N. Najmiddin Kubroning X.dan ekaniga alohida urg‘u beradi va shayx b-n bog‘liq tasavvufiy mazmundagi hikoyatni keltirib, “N.M.”da uning nihoyatda taqvoli, ulug‘ shayx ekanini ta’kidlaydi. Shuningdek, “M.N.”da ko‘plab X.lik shoirlarga o‘rin ajratadi. Xoja Abulvafo (q.s.)ga bag‘ishlangan fiqrada uni kibor avliyolardan, deb ta’riflaydi. So‘ngra “Xorazm xalqi g‘oyat malakiy sifotlig‘idin Xojani “yer farishtasi” – derlar erdi”, deya X. xalqining fazilatlarini ta’kidlab o‘tadi. “N.M.”da mazkur X.lik avliyoni yana bir esga oladi. Xuddi shuningdek yoki Mavlono Husayn Xorazmiyning Ka’b ibn Zuhayr bitgan “Qasidayi Burda”ga xorazmiycha turkiy til b-n sharh yozganini olqishlaydi. N. Haydar Xorazmiy, Nursaidbek, Muhammad Solih, Darvesh Xusomiy, Sulton Husayn, Mavlono Baqoiy, Mavlono Xayriy singari X.lik yaxshi ta’bi nazmi bor shoirlar haqida ham to‘xtaladi. Ulug‘ shoirimiz “N.M.” tazkirasida Xoja Ali Romitaniy, Majdiddin Bog‘dodiy, Shayx Raziyuddin Ali Lolo singari mashhur tasavvuf shayxlariga to‘xtalib, ularning X.da tug‘ilib o‘sganlarini ta’kidlaydi. N., shuningdek, X.da yashab o‘tgan va jahonshumul shuhratga ega bo‘lgan Zamaxshariy va uning mashhur “Kashshof” asarini o‘zining “M.Q.” asarida tilga oladi: “...bema’ni hazayonin Jorulloh bitgan “Kashshof”gumon qilg‘ay”. Shuningdek, N. Qur’on oyatlarining ilohiy kalom ekanligini ta’kidlar ekan, agar bir kishi Zamaxshariyning “Kashshof” tafsirini sharhlasa-yu, biror oyatga amal qilmasa, go‘yoki, qilgan ishi ham e’tiqodi ham “yo‘q”dek gap ekanini ta’kidlaydi:

Amal bir oyat ila aylamas, chu yo‘q taqdir,
Biravki aylasa “Kashshof”da o‘zin shorih.

Ko‘rib o‘tganimizdek, N. asarlarida qadim X. diyorining nomi tez-tez ko‘zga tashlanadi va mazkur yurt tarixi hamda adabiyoti b-n bog‘liq ma’lumotlar bilimimiz va tasavvurimizni boyitishga xizmat qiladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд.– Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; ЎзМЭ. 6-жилд. – Т., 2003.*

S.R.

XORAZMIY ABDURAHIM (t. va v.e.y.n., XV asr, Xorazm – Sheroz) – shoir, xattot. Abdurahmon Xorazmiyning o‘g‘li. Xattotlik sirlarini o‘z davrining taniqli xattoti bo‘lgan otasidan o‘rgangan. Ukasi Abdulkarim ham ham xattot bo‘lib, ota-bola xattotlar Tabrizda oqquyunlilar hukmdori Sulton Ya’qub (hukmronlik yillari – 1478–1490) saroyida faoliyat olib borganlar. X.A. 1460–1494-yy.da Tabriz va Sherozda oqquyunlilar saroyida xizmat qilgan. Bu sulola hukmdorlar u-n bir necha asarlar ko‘chirib bergan. Ular mashhur xattot Sultonali Mashhadiy b-n raqobat qilib, uning xattotlik uslubiga qarshi nasta’liq xatida o‘z uslublarini yaratganlar. Bu uslubni aslida X.A. ixtiro qilgan bo‘lsa-da, uni X.A. takomillashtirganligi jihatidan u “shevayi Anisiy” nomi b-n atalgan. Som Mirzo Safaviyning ma’lumot berishicha, nasta’liq xatini yuksak mahorat b-n bitgani tufayli u Sultonali Mashhadiy darajasida ulug‘langan. Jumladan, N. devonining oqquyunlilar sulolasi hukmronligi hududidagi muxlislar tomonidan tuzilgan devonini 1471-y.da ko‘chirgan. U Qohira kutubxonasida saqlanadi. 67 varaqdan iborat. Hajmi 20x13 sm. Qo‘lyozmada 2 ta miniatyura ham mavjud. Unda N.ning jami 229 ta she’ri keltirilgan: 224 g‘azal, 1 mustazod, 3 muxammas va 1 tarje’band. U “Ilk devon”dan keyin, shoirning rasmiy devonlaridan oldin tuzilgan bo‘lib, N.ning, asosan, 1466-y. dan keyin yozilgan she’rlarini o‘z ichiga olgan. U Sherozda ko‘chirilgan va oqquyunli hukmdori Uzun Hasanning o‘g‘li Xalilga yoki boshqa bir amaldorga bag‘ishlanganligi taxmin qilinadi. Chunki unga miniatyura ishlagan musavvir Xalil saroyida xizmat qilgan. Qo‘lyozmaning asosiy xususiyatlaridan biri shoir she’rlari o‘g‘uz turkchasiga adaptatsiyalashtirilgani, o‘g‘uz lahjasida so‘zlashuvchi o‘quvchilar auditoriyasiga yaqinlashtirilganidir. M-n:

Ul quyoshdekkim, anga mone’
bo‘lur abri bahor

misrasi:

Ul gunashtekkim, anga mone’
bo‘lur abri bahor, –

shaklida berilgan. Yoki “mehr ko‘p ko‘rguzdim” “mehr cho‘x ko‘rsatdim” tarzida o‘zgartirilgan va h.k.

X.A.ning xattotlik uslubi XV asr oxirigacha xattotlar u-n namuna hisoblangan. Safaviylar saroyidagi xattotlik maktabiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Qozi Ahmadning “Gulistoni hunar” kitobida ma’lumot berilishicha, Sheroz va uning atrofida yashab ijod etgan aksar xattotlar uning uslubida kitobat qilganlar.

X.A. Anisiy taxallusi b-n ijod qilib, she’rlaridan devon tuzgan. Som Mirzo “Tuhfayi Somiy” tazkirasida ijodidan namuna sifatida uning bir g‘azali matla’sini keltiradi:

Mija mone’ nashavad ashki mani mahzunro,
Natavon bast ba xoshok rahi Jayhunro.

Tarj.: Men g‘amga botganning ko‘z yoshlarini kiprik to‘sib qololmaydi, zero, xoshok b-n Jayhunning yo‘lini bog‘lab bo‘lmaydi.

N. “M.N.” tazkirasining ikkinchi majlisida birovlarning she’rlarini o‘zlashtirib oladigan va Hirotda dafn etilgan Anisiy nomli shoir haqida ma’lumot beradiki, u butunlay boshqa Anisiy bo‘lishi kerak.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Тазкираи “Тўҳфаи Сомий”. – Теҳрон, 1347*

(ҳ.ш.); Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. 1-жилд. – Душанбе, 1988; Эркинов А. Навоийнинг мухлислари томонидан тузилган яна бир девони // "Ўзбек тили ва адабиёти", 2012, № 1.

E.O.

XORAZMIY ABULVAFO (XIV asr oxiri – 1432, Xorazm) – musiqashunos, bastakor, sozanda, olim, shoir, donishmand. Tug‘ilgan yurtida musiqa, falsafa, riyoziyot, falakiyot, tibbiyot ilmlarini o‘rganadi. So‘ng bir muddat Buxoro, Samarqand va Hirot madrasalarida tahsil olib, ilmini kamolga yetkazadi. Abdurahmon Jomiy, N., Abdulloh Marvarid, Shodiy Hiraviy, G‘ulom Shodiy kabi adabiyot va musiqa ilmlari bilimdonlari b-n tanishib, ular b-n yaqin aloqa o‘rnatadi, musiqa va so‘z san’atining ko‘plab masalalari bo‘yicha bahs yuritadi. Jomiy tavsiyasiga ko‘ra musiqa nazariyasiga oid "Risolayi musiqiy" ("Musiqa haqida risola") asarini yozadi. 12 maqom misolida sozlarning tor-u pardalari haqida ham nazariy va amaliy yo‘sindagi tafsir yaratgan. Bu borada buyuk salaflari an’anasini davom ettirgan.

Ilmiy-adabiy manbalarda uning "Lavoyihi asror" ("Ravshanlik sirlari") va "Nasr ul-javohir" ("Nasr durdonalari") nomli ilmiy-tasavvufiy ruhdagi risolalar yozgani to‘g‘risida ma’lumot berilgan. Lekin u ko‘proq ruboiylari orqali mashhur bo‘lgan. Taniqli afg‘on adabiyotshunos olimi Najib Moyil Hiraviy Tehronda nashr etilgan "Dar shabistoni irfon" ("Irfon xilvatxonasida") asarida X.A. haqida ham muxtasar gapirib, uning 146 ta ruboiysini ilova tariqasida keltiradi. Bu ruboiylar Tehron Milliy kutubxonasida 306 raqami ostida saqlanayotgan "Jungi asrori irfon" ("Irfon sirlari daftari") to‘plamidan olingan. Tehronda 1993-y. chop etilgan "Ruboiynoma" to‘plamida esa shayx-shoirning 98 ta ruboiysi berilgan.

N. "M.N." va "N.M." asarlarida X.A.ni alohida hurmat va ehtirom b-n tilga oladi. M-n, "M.N."da o‘qiymiz:

"Xoja Abulvafo Xorazmiy (q.s.) kibori avliyodindur. Xorazm xalqi g‘oyat malakiy sifotlig‘idin Xojani "yer farishtasi" derlar erdi va Xoja ulumi zohiriy va botiniyni takmil qilib erdi. Va tasavvufda yaxshi musannofoti bor va mashhurdirkim, ulumi g‘ariba ham bilur erdi, ammo andin zohir bo‘lmas erdi, balki g‘oyati tavajjuh va istig‘roqdin parvo ham qilmas edi. Advor va musiqiy ilmida dag‘i mahorati bor erdikim, risolasidin ma’lum bo‘lur. Xoja avsofin har kishi bitir bo‘lsa, alohida bir kitob bitmak kerak, ma’lum emaskim, bir kitobda ham siqg‘aymu yo yo‘q. Bir ruboiysi bila ixtisor qiloli:

Bad kardam-u e’tizor badtar zi gunoh,
Zero, ki dar in hast se da’viyi taboh:
Da’viyi vujudu da’viyi quvvat-u fe’l,
Lohavla valo quvvata illo billoh.

Tarj: Uch nohaq da’vo sabab yomon ish qildimki, uzri gunohdan battar: ular vujud, quvvat va fe’l da’vosi bo‘lib, barcha kuch va qudrat sohibi Allohdir.

Xoja ham Xorazmda olamdin o‘tti va muborak marqadi ham Xorazmdadur".

"N.M."da yozadi: "Xoja Abulvafo xizmatlarig‘a tavhid arbobi va mavojid va azvoq as’hobi so‘fiya mashoribidin shurbi tamom bor ermish. Andoqki, alarning rasoil va ash’oridin, bataxsis ruboiyotidin bu ma’ni zohirdur va bu da’vo isbotig‘a necha ruboiy keltirilur... Va alarning vafoti sakkiz yuz o‘ttiz birda ermish...".

X.A. ruboiylari vahdat ul-vujud ta’limotining she’riy ifodasi hisoblanadi. U tasavvuf nazariyasi talab-qoidalarini she’riy usulda bayon qilib bergan. Bu dunyoning o‘tkinchiligi, nafs va jismning Haq yo‘lida to‘siqligi, haqiqiy hayot Alloh huzurida ekanligi, buning u-n kamolot kasb etib, xulqni poklab, komillik martabasiga erishish zarurligi, Alloh haqiqatlar haqiqati ekanligi, uni aql b-n anglab bo‘lmasligi, faqat yuksak maqomga ko‘tarilgan ko‘ngil holi b-n uni tanish mumkinligi, Alloh ehtiyojsiz zot ekanligi, bu dunyoni oshkor qilib, o‘zini pinhon tutganligi, banda ko‘ngliga ilohiy ishq Allohning o‘zi tomonidan solinishi, o‘zini bilgan hoy-u havasga qul bo‘lmasligi, darveshlik, zavq-u talab, dardmandlik, faqr-u fano, Haq yo‘li-

da o‘zni unutish, nom-u nishonsizlik va boshqalar X.A. ruboiylarining asosiy mavzulari hisoblanadi. Xos so‘fiylardan bo‘lgan shayx-shoir ruboiylarida ilohiy ishq tarannumi yetakchi, majoziy muhabbat tasvirini, deyarli, uchratmaymiz.

O‘zbek adabiyotshunoslari X.A. hayoti va ijodiga keyingi yillardagina e’tibor qarata boshladilar. H.Islomiy, H.Abdullayev, O.Usmon, E.Ochilovlarning shayx-shoir haqidagi dastlabki kuzatishlari e’lon qilindi. E.Ochilov uning 98 ta ruboiysini tarjima qilgan. M-n:

Sen soyaga boq: shu’ladan izlaydi visol,
To soyaligicha qolsa u − vasl mahol.
Gar soya vujud zulmatidan topsa xalos,
Nur bo‘lg‘usi qolmay nuqsi, topg‘usi kamol.
Tun yarmida yor xayoli bo‘ldi mehmon,
Dedim: “Dil-u jon senga fidodir, jonon!”
Dedi: “Dil-u jon, axir, sening mulkingmas,
Himmat qilish o‘zgalar molidan oson”.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Рубоийнома. Гузидаи рубоиёт аз Рўдакий Самарқандий то имрўз. – Теҳрон, 1994; Абулвафо Хоразмий. Рубоийлар // Муҳаббат тароналари. – Т., 2005; Абулвафо Хоразмий. Рубоийлар // Донишмандлар туҳфаси. – Т., 2009. Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 3. – Душанбе, 2004.*

E.O., M.A.

XORAZMIY HAYDAR (XIV asrning oxiri – Xorazm − XV asrning I yarmi) − shoir. U haqda ba’zi tazkiralardagina ayrim ma’lumotlar saqlanib qolgan. Chunonchi, N. “M.L.” asarida uni Sakkokiy, Atoiy, Muqimiy, Yaqiniy, Amiriy va Gadoiy kabi “xushta’b” shoirlar qatorida sanab o‘tsa, “M.N.” tazkirasida − temuriy shahzodalarga bag‘ishlangan yettinchi majlisda Sulton Iskandar Sheroziy (Umarshayxning o‘g‘li) zikrida X.H.ni ham tilga oladi: “Mavlono Haydar turkigo‘y aning modihi ekandur. Bu aning masnaviysidurkim:

Himmat ilidur yadi bayzo degan,
Er nafasidur dami Iso degan”.

Davlatshoh Samarqandiy “Tazkirat ush-shuaro”sida: “Fuzalo va shuarodan Mavlono Haydar edikim, turkiy va forsiyda go‘zal va diqqatga sazovor she’rlari bor va Shayx Nizomiyning “Maxzan ul-asror”iga javob bitib, uni amirzoda Iskandarga bag‘ishlagan”, degan ma’lumotlar mavjud.

X.H.ning lirik merosi saqlanib qolmagan, bizga qadar uning faqat ulug‘ ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy “Xamsa”sining birinchi dostoni “Maxzan ul-asror” (“Sirlar xazinasi”) ga nazira tarzida yozilgan “Gulshan ul-asror” (“Sirlar gulshani”) dostoni yetib kelgan. Yaqinda topilib, ilmiy muomalaga kiritilgan XV asrning 1-yarmida yashagan Shayx Ahmad Taroziyning 1436–1437-yy.da o‘zbek tilida yozilgan “Funun ul-balog‘a” (“Yetuklik ilmlari”) nomli adabiyotshunoslikka oid asaridan ma’lum bo‘lishicha, biz shu paytgacha Lutfiyga nisbat berib kelganimiz “Gul va Navro‘z” dostoni aslida X.H.ga tegishli ekan. U o‘z asarida “Mavlono Haydar aytur” deb dostondan bir necha marta misol keltiradi. Zahriddin Muhammad Bobur ham “Muxtasar” risolasida bu asarni X.H.ga nisbat bergani ma’lum.

X.H. o‘zbek adabiy tili taraqqiyoti u-n kurashgan shoirlar jumlasiga kiradi. Shuning u-n ham u o‘z dostonida o‘zbek tili boyliklarini ko‘z-ko‘z qilishga intiladi. Temur va temuriylar davrida turkiy xalqlarning mavqeyi ko‘tarilishi b-n turkiy tilning nufuzi ham ortishi ushbu asarning turkiy tilda yozilishiga sabab bo‘lganligini ta’kidlaydi:

Turk zuhuridur ochunda bu kun,
Boshlar uluq yir bila turkona un!

Turk surudini tuzuk birla tuz,
Yaxshi ayolg‘u bila ko‘kla qo‘buz.

Shoir “Gulshan ul-asror”ni Nizomiy Ganjaviyning “Maxzan ul-asror” dostonidan ta’sirlanib

yozgani, bu yo‘lda ulug‘ ustoz unga rahnamolik qilganini quyidagi misralarda e’tirof etadi:

Menki pishurdim bu laziz oshni,
Shayx Nizomiydin olib choshni.

Shayx Nizomiy damidin jon topib,
Ma’nisidin yorlig‘u burhon topib.

“Gulshan ul-asror” sof o‘zbek tilida yozilgan. Unda arab va fors tilidagi so‘zlar juda oz. Bu hol X.H.ning o‘zbek tilining ijtimoiy-madaniy hayotdagi mavqe-maqomini tayin etish, uning nufuzini ko‘tarish u-n kurashgan milliy til va adabiyot fidoyilaridan biri ekanligini ko‘rsatadi. O‘zbek tilidagi axloqiy-falsafiy dostonchilikning yetuk namunasi sifatida o‘zbek adabiy tili va adabiyoti taraqqiyotida muhim rol o‘ynagani hamda mumtoz adabiyotimiz xazinasidan munosib o‘rin egallagani ham “Gulshan ul-asror”ning ahamiyati va X.H.ning baland salohiyatidan darak berib turibdi.

Asarning qo‘lyozma nusxalari London, Parij, Vena, Qozon kutubxonalarida, fotonusxalari Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Ҳайдар Хоразмий. Гулшани роз // Муборак мактублар. – Т., 1987; Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т., 1976; Ўзбек адабиёти тарихи. 5 жилдлик, 1-жилд. – Т., 1977; Ғаниева С. Навоий насри нафосати. – Т., 2000.*

Ab.H., E.O.

XORAZMIY HUSAYN (1368/69–1435/36) – tasavvuf olimi, mutasavvif shoir. X. hayoti va ijodini maxsus tadqiq etgan amerikalik sharqshunos olim Devin Devisning izlanishlaridan ma’lum bo‘lishicha, u taxminan 1368–69-yy.da tug‘ilgan, 1420–30-yy.da uning ta’siri va shuhrati o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga chiqqan, 1435–36-yy.da fojiali o‘lim topgan. Otasining ismi Hasan bo‘lgan. O‘z asarlarida u nisbasini kamtarlik b-n Husayn ibn Hasan Xorazmiy deb qo‘ygan. Xorazmning hokimi Amir Shohmalik va uning o‘g‘li Ibrohim saroyida maslahatchi bo‘lib xizmat qilgan. Amir Shohmalik va ko‘chmanchi o‘zbek sultonlari orasida tinchlik-do‘stlik munosabatlarini o‘rnatish u-n elchilik xizmati b-n Dashti Qipchoqqa ham borgan.

N. “M.N.” tazkirasida ma’lumot berishicha, Mavlono Husayn Abulvafo Xorazmiyning “zohir ilmida shogirdi va botin ilmida muridi”dir. O‘z zamonida nihoyatda shuhrat tutgan. “Maqsadi aqso” (“Eng so‘nggi maqsad”) asarini yozgan. Mavlono Jaloliddin Rumiyning “Masnaviyi ma’naviy”si va islom olamida mashhur “Qasidayi burda”ga “xorazmiycha turkiy til bila sharh bitibdur”. Axloqi va fazilatlari tasavvufdagi yuksak maqomiga munosib.

Ey dar hamin olam pinhon tuivu paydo tu,
Har dardi dili oshiq, ham asli mudovo tu.

“Ey bu dunyoda pinhon ham o‘zing, paydo ham, oshiq diliga dard ham o‘zing, davo ham” matla’li g‘azali u-n kufrda ayblab, Hirotga olib keladilar. Ammo donishmand va orif kishi bo‘lgani u-n bo‘yniga qo‘ya olmaydilar va Xorazmga qaytib ketishiga ruxsat beradilar.

Devin Devis Mavlono X.H.ning quyidagi asarlari haqida ma’lumot beradi:

1. “Javohir ul-asror va zavohir ul-anvor” (“Sirlar javohiri va nurlar jilvasi”). X.H.ning “Masnaviyi ma’naviy”ga yozgan mashhur sharhi (1430–31). Lekin u asarning faqat yarmi – dastlabki uch daftarini sharhlagan. Bu uning so‘nggi asari bo‘lgani u-n vafoti tufayli yakunlanmay qolgan bo‘lishi mumkin.

2. “Kunuz ul-haqoyiq fi rumuz ul-daqoyiq” (“Haqiqatlar xazinasi va nozik ma’nolar ramzi”). Bu allomaning “Masnaviyi ma’naviy”ga yozgan dastlabki sharhi.

3. “Yanbu ul-asror va nasoyih ul-abror” (“Sirlar chashmasi va yaxshilar nasihati”) yoki “Nasihatnomayi shohiy” (“Shohlik nasihatnomasi”). Xorazm hukmdori Amir Shohmalikning tajriba va xulosalarini o‘z ichiga olgan pandnoma yo‘nalishidagi asar (1428-29).

4. “Sharhi muxaxxas” (“Muxtasar sharh”). Astronomiyaga oid bu risola X.H. bilim ko‘lamining chuqur va izlanishlar doirasining qanchalik keng bo‘lganligini ko‘rsatadi.

5. “Maqsad al-aqso”. Arab tilidagi payg‘ambar tarixining forsiy tarjimasi. Bu muallifning eng mashhur asari bo‘lib, N. va Xondamirlar tomonidan ham tilga olingan.

6. Devon. Lui Massinonning ma’lumotiga qaraganda Hindistonda Mansur Halloj nomidan e’lon qilingan devon aslida X.H.nikidir.

7. “Kashf al-Hudo” (“Haqiqatlar kashfi”) nomli falsafiy asar.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Аҳмедов А. Шайх Ҳусайнбобо тарихи. – Т., 2006; Девис Д. Хусайн Хорезми: среднеазиатский суфий начала XV века // Из истории суфизма: источники и социальная практика. – Т., 1991; Донишмандлар туҳфаси. – Т., 2009.*

E.O.

XORAZMIY MUHAMMAD YOQUBJON XOLIS – Xivada XIX asr ikkinchi yarmida yashagan. Fors-arab tillarining bilimdoni. Tarix va adabiy-diniy kitoblarni o‘zbek tiliga o‘girgan. Mohir xattot sifatida ko‘p kitoblarni ko‘chirgan. Jali xati (yirik) b-n yozgan bayoz va qit’alari bor. U Xolis taxallusi b-n she’rlar ijod qilgan.

Xiva shahrida 1286/1869-y.da “X.”ni ko‘chirib tugatgan. Toshkent, Abu Rayhon Beruniy nomidagi ShI. Inv. № 790. 333 varaq. Qo‘lyozma husnixati va badiiy bezaklari jihatidan XIX asr Xorazm kitobat san’atining noyob namunasidir.

Ad.: *Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. –Т., 1991; Собрание восточных рукописей академии наук Узбекистан. VII. – Т., 1964.*

Muh.A.

XORAZMLIK SHOIRLAR IJODIDA NAVOIY AN’ANALARI – N. ijodi o‘zidan keyingi shoirlar u-n ibrat maktabi bo‘ldi. Xususan, Xorazm shoirlari ijodida ham N. an’analari munosib tarzda davom ettirilgan. N.ning xorazmlik shoirlar ijodiga ta’siri xususida V.Abdullayev, G‘.Karimov, R.Majidiy, Y.Yusupov, S.Dolimov, Xolid Rasul, O.Qosimxo‘jayeva, M.Salayeva, H.Abdullayev va boshqalar o‘zlarining Xorazm shoirlari haqidagi tadqiqot ishlarida ma’lumot berganlar.

Xorazmlik shoirlardan Majlisiy, Mavlono Vafo Vafoiy, Umar Boqiy, Ravnaq, Nishotiy, Roqim, Kiromiy, Munis, Ogahiy, Komil, Feruz, Tabibiy, Bayoniy, Mirzo, Niyoziy, Rog‘ib, Avaz Devoniy va boshqa ijodkorlar N. an’analarini davom ettirganlar, ilhom olganlar.

XVI asrda yashab, ijod etgan Majlisiy o‘zining “Qissayi Sayfulmuluk” dostonini yaratishda N.ning “F.Sh.” dostonidan ta’sirlangani sezilib turadi. M-n:

Dedikim, Majlisiy, holing nechukdir
Firoq o‘tida ahvoling nechukdir?

kabi N. dostoniga hamohang misralar ko‘p uchraydi.

N. she’riyatidan ijodiy o‘rganish, ijodiy ta’sir ishq mavzusidagi g‘azallarda asosiy o‘rinni egallaydi. Buning boisi atoqli n.shunos A.Hayitmetov ta’kidlaganidek, “Ishq mavzusi N. lirikasida boshqa temalar uchun asosiy fan, ba’zan bahona yoki parda vazifasini bajardi. U o‘zining har qandan fikrini shu masalaga bog‘lab ifodalaydi va ilgari suradi”.

Darhaqiqat, ishqiy mavzudagi she’rlar ijtimoiy ohang b-n yo‘g‘rilib XVI asrda Xorazmda yashab, ijod etgan Mavlono Vafo Vafoiy she’riyatida ham yaratilgan. Jumladan, N. yozadi:

O‘zga bo‘ldi yor mehri menda boqiydur hanuz,
Notavon ko‘nglimda ul oy ishtiyoqudur hanuz.

Ravnaq esa:

Bu na tole edikim, qilmadi imdod hanuz,
Bo‘lmadi xotirimiz qayg‘udin hanuz,

deya shogirdlik kalomini bitgan.

Pahlavonquli Ravnaq devonidagi 12 ta muxammasning to‘qqiztasi N. g‘azallariga bog‘langani ijodiy ta’sir natijasidir.

XVI asrda Xorazmda yashab ijod etgan Muhammad Niyoz Nishotiy N. an’analarini munosib davom ettirgan. Ayniqsa, uning “Husn-u Dil” dostoni N.ning dostonnavislik borasidagi an’analarini davom ettirganidan dalolatdir. Nishotiy N.ning o‘ziga xos badiiy mahoratiga yuqori baho berib, uni ijodda quyoshga tenglashtirib, ulug‘ ustozga munosib shogird bo‘lishini orzu etadi.

Yana bir ijodkor Roqim lirikasida ham N. she’riyatining ta’siri sezilib turadi. Roqim ijodi bo‘yicha tadqiqot olib borgan O.Qosimxo‘jayevaning ma’lumotiga ko‘ra, shoirning 86 muxammasidan 29 tasi N. g‘azallariga bog‘langan.

Shermuhammad Avazbiy o‘g‘li Munis (1778–1829) XIX asr Xorazm adabiy muhitining karvonboshisi hisoblanadi.

Shermuhammad Munis she’riyati u-n N. ijodi ilhom manbayi bo‘lib xizmat qilgan. M-n bir o‘rinda:

So‘z ichra Navoiyki jahongirdurur,
Munisg‘a maoniy yo‘lida pirdurur, –

deya faxriya bitgan bo‘lsa, quyidagi baytda shoirning N.ga mehr-u e’tiqodi sezilib turadi:

Bas erur senga aylab hamisha tarbiyat,
Menki Munisman, meni qilmoq Navoiy dastgir.

Adabiyotshunos N.Jumaxo‘ja: “Munis ulushshoq”dagi ko‘pgina g‘azallar navoiyona uslubda yozilganiga ajablanmasa ham bo‘ladi. Bu tabiiy hol. Munisning qator nazira va muxammaslari N. b-n maslakdosh, fikrdosh bo‘lish, badiiy so‘zga shoirga xos yo‘sinda yondashish samarasi sifatida yuzaga kelgan”ligini qayd etadi.

Munisning N. g‘azallariga bog‘langan “Bu kecha sahni gulistonda bizning jononadur”, “Firoq dashtini charx etti to diyor manga”, “Shirin suxan Laylivashim vaqtiki qohir bo‘lg‘usi”, “Bahoroso jamolidin gul ochmoq iktisob aylab”, “To g‘ami ishq bo‘libtur romim”, “Subhkim, dayr aro tutdim orom”, deb boshlanuvchi va boshqa muxammaslari yuksak badiiyat namunalari hisoblanadi.

Yana bir ulug‘ so‘z san’atkori Muhammadrizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy (1809–1874) ijodida ham N. ruhi yaqqol ko‘zga tashlanadi. “Muhammadrizoning she’riyat sirlarini mukammal egallab, yirik ijodkor sifatida kamol topishida, asarlarining badiiy yetuk va g‘oyaviy xalqchil ruh egallashida ulug‘ N.ning ta’siri, ayniqsa, samarali bo‘ldi”, – deb yozgan edi adabiyotshunos A.Abdug‘afurov. Darhaqiqat, bu ta’sirni Ogahiy ham e’tirof etgan edi:

Ogahiy, kim topqay erdi sozi nazmingdin navo,
Bahra gar yo‘qtur Navoiyning navosidin sanga?!

N. va Ogahiy g‘azallaridagi mavzu va g‘oyaviy yo‘nalishda ham hamohanglik ko‘zga tashlanadi. Shoirlar fikr va qarashlarida ham o‘xshashlik bor. N. she’riyatidagi komil inson g‘oyasi, tasavvufga munosabat va boshqa masalalarda ham yakdillik seziladi.

Ishq mavzusidan so‘z ketganda esa bu ikki daho ijodkor she’riyatidagi quyidagi baytlar hamohanglik kasb etadi. N. yozadi:

Ey Navoiy, ishq atvorini hifz aylay degan,
Barcha ishni tark etib, qilsin bizning devonni hifz.

Ogahiy esa:

Ogahiy holini gar ishq ichra bilmak istasang,
Chashmi ibrat birla dardangez devonimg‘a boq,

deyish b-n shogirdlik kalomini bitgan.

Komil Xorazmiy (1825–1899) Xorazm adabiy muhitining ko‘zga ko‘ringan badiiy mahorati

yuksak ijodkorlaridan sanaladi. Komil Xorazmiy devon tartib bergan shoir, tarjimon, xattot, musiqashunos, davlat arbobi sifatida adabiyotimiz tarixida muhim o‘rin egallaydi. Uning she’riy merosida N. an’analari davom ettirilgan. Shoirning o‘zi esa “Ne tong Komil Navoiy yanglig‘ o‘lsa so‘z aro sarmast...” deya faxriya bitgan edi.

N. ijodida “Ey ko‘ngil” radifli g‘azallar bir nechtadir. Bu g‘azallarga tatabbu’ Ogahiy, Komil Xorazmiy ijodida ham uchraydi. N. yozadi:

Olam ahlig‘a vafo ko‘p qildimu, ko‘rdim jafo,
Ulfating bu xayldin sen bori qil kam, ey ko‘ngul.

Mumtoz adabiyotda ko‘ngil bosh timsollardan biri hisoblanadi. Ko‘ngil asosiy tasvir vositalaridan biri. Ko‘ngilga murojaat Komil Xorazmiy she’riyatida N.dan ta’sirlangan holda quyidagi tarzda qalamga olingan.

Bo‘lmasa gar dunu sifla do‘sti gardun, ey ko‘ngil,
Nega dunni shod etar, dononi mahzun, ey ko‘ngil.

Komil Xorazmiyning “Ahbob” radifli g‘azalida umrning g‘animatligi, do‘st-u yorning qadriga yetish borasida so‘z ketadi. G‘azal shunday boshlanadi:

Tutinglar bir-birovning suhbatini
mug‘tanam ahbob,
Ki barcha bo‘lg‘umiz navbat bilan
bir-bir adam, ahbob.

Bu g‘azal ham N. ijodidan bahramandlik asosida bitilgan. N. yozadi:

Ki bir kun bo‘lurmiz adam, ey rafiq,
G‘animat tutoli bu dam, ey rafiq,

Bu baytlarda ham g‘oyaviy yo‘nalishda, xulosaviy fikrlarda mushtaraklik ko‘zga tashlanadi.

Komil Xorazmiy ham N. g‘azallariga bir qancha muxammaslar bog‘lagan. Muxammasda Komilning o‘z salafi egallagan yuksak cho‘qqiga ko‘tarila olgani ko‘zga tashlanadi:

Olam ahlidan vafo osorini qilmang gumon,
Naqd umrim sarf etib qildim alarni imtihon,
Uzlat istab ahli olamdin qoching boricha jon,
Oshnolig‘ aylabon o‘z joningizg‘a har zamon,
Boisi yuz ming balo-u o‘z mehnat-u
g‘am bo‘lmangiz.

N.ning she’riyatdagi an’analarini davom ettirgan xorazmlik shoirlardan yana biri Otaniyoz Niyoziydir (1844–1928). Otaniyoz Niyoziy ulug‘ shoirlar an’analarini davom ettirib, ular fikrini rivojlantirib, go‘zal g‘azallar bitgan. Ma’lum bir o‘rinlarda Niyoziy ijodiyoti ruh va uslubda N. she’riyatiga uyg‘unlik kasb etgan. N. yozadi:

Zihi husnung zuhuridin tushub
har kimga bir savdo,
Bu savdolar bila kavnayn bozorida yuz avg‘o.

Seni topmoq base mushkuldurur,
topmaslig‘ osonkim,
Erur paydolig‘ing pinhon,
vale pinhonlig‘ing paydo.

Otaniyoz Niyoziy N. g‘azalidan ta’sirlanib, yangicha ma’no qirralarini qo‘shib, shunday misralar bitadi:

Zihi osori sun’ingga ne poyon-u, ne had paydo.
Ne mulking hifzig‘a bo‘lgay
nigahbon-u rasad paydo.
Emas hayrat mahalli homid-u zokirlaring sori,
Tavajjuh qilgali gar bo‘lmasa jinsi adad paydo.

Ijodiy ta’sir shunchaki taqlidchilik degani emas. Ta’sir orqali shoir o‘zining nimaga qiziqishi, nimani qo‘llab, nimani inkor etishini ham namoyon qiladi. N.ga ergashish, ulug‘ mutafakkir so‘zlaridan ta’sirlanish o‘z-o‘zidan dunyo hodisalariga juda keng qarash, hayotiy haqiqatlarning muhimidan nomuhimini oson farqlash, ezgulik va yovuzlik, adolatsizlik o‘rtasidagi ziddiyatlarni chuqur mushohada qilish, inson qalbining eng chuqur joylariga nazar tashlashga ilhomlantiradi. Lekin bularning yuzaga chiqishi bevosita ishq mavzusiga bog‘liqdir.

An’anaga aylangan va N.dan keyin ham izchil tatbiq etilgan bu usulga Niyoziy ham to‘la sodiq qolgan edi. N. oshiqlikni oriflik, faqirlik va darveshlikdan butunlay ajratmagani yoki qarama-qarshi qo‘ymaganligi ma’lum, albatta. Niyoziyda ham shunday, u hatto, shoh va darvesh muammosini hal qilishda boshqa bir ijodkorga emas, aynan N. nuqtayi nazariga tayanadi.

Umuman, Otaniyoz Niyoziy g‘azaliyotidan N. ruhi ufurib turadi. Shoir uchun N. ijodi rag‘bat va ilhom manbayi bo‘lgan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Shuning u-n ham Niyoziyning ko‘pgina g‘azallari N. uslubiga ergashib yozilgan. Otaniyoz Niyoziyning ko‘pgina g‘azallari N.ga nazira g‘azallar deyish mumkin. Otaniyoz Niyoziy devonidagi 16-g‘azal N.ning “B.B.” devonining 9-g‘azali ta’sirida bitilgani ayon bo‘ladi. N.ning mashhur g‘azali shunday so‘zlar b-n boshlanadi:

Har gadokim, bo‘ryoyi faqr erur kisvat anga,
Saltanat zarbaftidan hojat emas xil’at anga.

Shah yurub olam ochar, darvesh olamdin qochar,
Ham o‘zing insof bergilkim, bu ne nisbat anga.

N. g‘azalida talqin qilingan jasoratbaxsh g‘oya Niyoziyni ham ilhomlantirganki, bu albatta, e’tiborga molik. Niyoziyga ko‘ra, jahon kishvarin fath aylamak sultonning rasmi. Bundan yuz burish uning odatiga to‘g‘ri kelmaydi. Aytish mumkinki, Niyoziy ta’rifidagi darvesh yanada ozodroq qiyofada ko‘rinadi.

Garchi darveshlar harob ahvol erur, masrurdur,
Kim nuqudi din-u millat bordurur manhud anga.

N.ning “B.B.” devonidan o‘rin olgan oltinchi, yettinchi g‘azallar na’t g‘azallar hisoblanadi. Niyoziy devonida ham bir necha shunday she’rlar mavjud. Baytlar adabiyot ixlosmandlariga yod bo‘lib ketgan: “Ko‘nglum o‘rtansun agar, g‘ayringa parvo aylasa”, deb boshlanuvchi N. g‘azaliga Niyoziy muxammas bog‘lagan. N. ishqi haqiqiyni qalamga olar ekan, o‘zi mansub bo‘lgan naqshbandiya tariqati ahkomlarini ham g‘azalga singdiradi. Naqshbandiya tariqatining shiori: “Dil ba yor-u dast ba kor”, ya’ni “Qo‘ling ishda, ko‘ngling Allohda bo‘lsin” demak.

Naqshbandiya tariqati uzlatga chekinib, jahr qilishni, ya’ni ovoz chiqarib zikr qilishning tarafdori emas. Shu sabab N. ushbu misralarni yozgan:

G‘ayr zikrin oshkor qilsa, lol o‘lsun tilim,
Qaysi bir til hamki, zikring oshkoro aylasa.

Maqsad aniqki, oshiq oshkora zikr qilishni istamaydi. Shuni e’tirof etish joizki, Niyoziy yuqoridagi misralarga yangicha ruh beruvchi satrlar bitgan:

Xotirimga boshqa yodi kelsa, xok o‘lsun dilim,
Ham uzulsin g‘ayriga gah xam qilur bo‘lsa belim,
Ham qurub qolsun badanning
maddasi bo‘lgan gilim...

Niyoziy inson yaralishining tuproqdan – gildan ekanligini ham qalamga oladi. N.ning hammaslagi sifatida Niyoziy badiiy talqinda ham o‘ziga xoslik yaratdi: “Orzu bo‘ldi azaldin ko‘ngluma ishqing fani”, “Bu ajab husn guli aslo xazondin so‘lmag‘ay” deyish b-n shogirdlik kalomini aytdi.

Turfadur Majnunliqim holimni bilmasdur habib,
Bir nafas bo‘lmas rifoqatdin mango hargiz nasib,
Bolalig‘ dasti aro endi bo‘lubdurman g‘arib,
Kelturung raf’i jununimg‘a parixon, ey tabib,
Kim ul ansabdur pari har kimni shaydo aylasa.

Muxammas shunday yakun topadi:

Zoli dunyo fikrida sarg‘arma, so‘lma nechakim,
Ey Niyoziy, aldanib uzrinib kulma nechakim,
Inqiyod aylab, aning yuziga kulma nechakim,
Dahr sho‘xiga Navoiy sayd bo‘lma nechakim,
Kun uzori uzra tun zulfin mutarro aylasa.

N.ning talqinicha, dahr sho‘xi – olamning aldamchi o‘yinlari, ehtiros-u hislariga sayd bo‘lmoqlik fojia. Niyoziy esa “Zoli dunyo fikrida sarg‘arma, so‘lma, nechakim” deydi. Bu fikr N. talqinining yana bir qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Ko‘rinadiki, ustoz fikriy olami shogirdlarga ilhombaxsh tuyg‘u sifatida zohirlanadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Салаева М. Навоий ва Хоразм шоирлари. – Урганч, 1993; Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. – Т., 1961; Комилов Н. Тасаввуф. 1-китоб. – Т., 1996; Жумаев А. Мунис ғазалиёти. – Т., 1991; Атоқли шоир, тарихнавис, таржимон // Абдуғафуров А. Огоҳлар огаҳи. – Т., 1999.*

D.G‘.

XORAZM VA XORAZMLIKLAR HAQIDA NAVOIY – N. Xorazm va xorazmliklarga o‘z asarlarida alohida mehr b-n qaragan. U bu azim vohadagi hayot, urf-odatlar, madaniy va adabiy muhitdan yaxshigina xabardor bo‘lgan.

Husayn Boyqaro o‘sha vaqtda Xurosonga qarashli bo‘lgan Xorazmga N.ning akasi Shayx Bahlulbekni hokim qilib tayinlagan. Bu esa N. ning Xorazm hayoti b-n tanishishida ham muhim omillardan bo‘lgan.

Xondamirning “Makorim ul-axloq” asarida Shayx Bahlul N.ning “ulug‘ birodari”, ya’ni katta akasi ekanligi yoziladi. Bu xususda N. ham “M.N.” asarida, “Bahlulbek faqirning og‘asi” deb yozgan edi.

Xondamirning “Makorim ul-axloq” asarida yozilishicha, “Bir vaqtda Sulton (Husayn Boyqaro) Xorazm viloyatini obod qilish va unga binolar qurish xayoliga tushib, binokorlik va dehqonchilik ishlariga yaxshi ahamiyat berib harakat qilishlari va joylanib turishlari u-n Xurosondan uch ming xonadonni Xorazmga ko‘chirish haqida majburiy buyruq chiqardi”.

Tabiiyki, uch ming xonadonni vatanidan judo qilish yaxshi emasligini anglagan N. do‘sti Boyqaroga bunday ishning noto‘g‘riligi haqida to‘qqiz bor arz qilgan. O‘ninchi marta arz qilganda, Boyqaro faqat ming xonadonni Xorazmga ko‘chirishni amr qildi. N. o‘troqlashgan xurosonliklarni Xorazmga majburiy ko‘chirgandan ko‘ra, XII asrning 80-yy.ida Hazorasp va Xivadan Hirotga ko‘chirtirib kelingan naqqosh, me’mor, hunarmandlarni o‘z ellari – Xorazmga yuborish zarurligini uqtirib, do‘sti Boyqarodan bu haqda farmon chiqartirib oldi.

N.ning “S.S.” dostonida maxsus Xorazm b-n bog‘liq bob bor. Asarning 33-bobida xorazmlik musofir hikoyati berilgan.

Shuningdek, N. “M.N.”, “N.M.”, “T.A.H.” asarlarida Xorazm adabiy muhiti, ijodkorlari xususida to‘xtalgan.

“N.M.” tazkirasida hayoti va faoliyati yoritilgan shayxlardan 20 nafardan ziyodi asli xorazmlik yoxud bilvosita Xorazmga aloqadordir. Bu shayxlarni ma’lumotlar xarakteriga ko‘ra ikki guruhga ajratish mumkin:

1. N. boshqa asarlarida qisman ma’lumotlar bergan, lekin bu asarida kengroq to‘xtalgan shayxlar. (Xoja Abulvafo Xorazmiy, Abdulloh Muborak, shayx Najmiddin Kubro, Xubbi Xoja, Sayyid ota va boshqalar).

2. Ilk bor tilga olinib, hayoti va ijodiga doir muhim jihatlari yoritilgan shayxlar (Pahlavon Mahmud, shayx Alovuddin Xorazmiy, Abulhasan Ishqiy, Muhriy Mahmud, Imra’tun Xorazmiya va boshqalar).

N. “N.M.” asarida quyidagicha ma’lumot keltiradi: “Kuniyatlari Abuljanob va otlari Ahmad ibni Umar Xevaqiy va laqablari Kubro va debturlariki, alarg‘a Kubro andin laqab bo‘ldiki yigitlik ovonidaki, zohir ulumi tahsilig‘a mashg‘ul ermishlar, har kim bilakim, munozara va mubohasa qilsalar ermish – ul kishiga g‘olib bo‘lurlar ermish... Va alarni Shayx Valitarosh debturlar”. N. Najmiddin Kubroning sifatlari haqida ma’lumot berar ekan, Shayxning nazari kimga tushsa, valiylik martabasiga erishishi xususida to‘xtalgan. Bir kuni Najmiddin Kubroning muborak nazarlari bir itga tushgani haqida rivoyat keltirgan: “Alarning muborak nazarlari ul it sori tushti. Filhol baxshish topib, mutahayyir va bexud bo‘lib,

shahrdin yuz evurdi va go‘ristong‘a mutavvajjeh bo‘ldi va boshin yerga surtar edi. Debturlarki, har yon borsa, kelsa erdi, ellik oltmishqa yaqin it ani irishib, andin ayrilmaslar erdi va qayda sokin bo‘lsa, tegrasida halqa urib, iliklarin ilk ustiga qo‘yub, un chiqarmaslar erdi va nima emaslar erdi va hurmat bila turarlar erdi. Oqibat ul yaqinda o‘ldi. Ul hazrat buyurdilarki, ani dafn qildilar va qabri boshida imorat yasadilar”. Shuningdek, “N.M.”da Shayx Najmiddin Kubroning shogirdlari haqida ham ma’lumotlar berilgan.

N. yuqoridagi tazkirasida xorazmlik shoir Hakim ota Sulaymon Boqirg‘oniy haqida to‘xtalar ekan, uning Ahmad Yassaviy shogirdlaridan biri ekanligini, unga “Hikmat tili go‘yo bo‘lganligini” yozadi. Darhaqiqat, Sulaymon Boqirg‘oniy hikmat bobida Yassaviyga munosib izdosh bo‘la oldi. Asarda Hakim ota haqidagi ma’lumotlar quyidagicha yakunlanadi:

“Andoqqi aning favoyidi atrok arosida mashhurdur. Ul jumladin biri budurkim:

Tiki turg‘on tubaydur,
Borg‘onlarni yutadur,
Borg‘onlar kelmas bo‘ldi,
Magar manzil andadir.

N.ning ta’kidlashicha, xorazmlik shayxlarning anchasi murshidlik irshodiga erishgan. Xudo yo‘liga o‘zini bag‘ishlab, riyozat-u mashaqqatlarini yenga olgan sabotli ulamolar bo‘lib, ilohiy karomat va islomiy e’tiqodga cheksiz sadoqat ko‘rsatganlar. Shulardan biri “o‘n ikki kun bir vuz’ (yuz, qo‘l yuvish) b-n namoz qilgan va o‘n besh yil yonin yerga qo‘ymagan” shayx Alouddin Xorazmiy edi. Asarda bu shayx fazilatlari Imom Yofi’iy bergan ma’lumotlar asosida hikoya qilinadi. Shuningdek, bu ma’lumotlarning bir qismi ilk ayol avliyo – Imra’atun Xorazmiya haqida bo‘lib, “Xorazm navohiysida bir xotun ko‘rdimki, yigirma yildan ortuqroq yegulik va ichgulikni ishtig‘ol ko‘rguzmaydur edi”, – deya ta’riflanadi.

N.ning “N.M.” asarida Pahlavon Mahmud ruboiylari va hayotiga oid ba’zi rivoyatlar mazmuni keltirilgan. N. Pahlavon Mahmudning shoirlik iqtidoriga, xususan, ruboiylariga yuksak baho bergan. Shoirning uchta ruboiysini sharhlash orqali donishmand shoirga xos vatanparvarlik, elparvarlik, jismoniy va ma’naviy barkamollik fazilatlari ulug‘lanadi. N. keltirgan rivoyatlarning birinchisi Pahlavon Mahmudning hind Pahlavoni b-n kurash tushishi, ikkinchisi esa hind shohining o‘limdan qutqarishi xususidadir.

N. asarlarida Xorazm shevasiga, o‘g‘uz lahjasiga oid ko‘plab so‘zlar uchraydiki, ularning boshqa lahjada so‘zlovchilar tushunishlari qiyin.

Solur andog‘ jahona g‘avg‘oe,
Koinot ichra bir ***aloloe.***

“Muft” (mut) – so‘zi Xorazm vohasidagi tekin yoki arzon degan ma’nolarni anglatadi. Misol:

Dedi: bu yerda oltin ancha muft. Men qilurman shah oltunini nufut.

“Al” – qo‘l ma’nosini beruvchi so‘z bo‘lib, azaldan to bugungacha qo‘llanilib kelinyapti. N. hazratlari yozadi:

Oni ham chekdi mezboni saxiy,
Mehmon alinda saxo ko‘r, ahiy.

“Ibriq” – ko‘za:

Zaytga robitai bo‘ldi daqiqi,
Non ikki kurs edi, su bir ibriq.
Yurmoq – ta’bir qilmoq:

Men tushingni yo‘ray, vale sen ham.
Shart qilqim, ne aytsam men ham

Xullas, birgina “S.S.” asarining o‘zida “dadak” – churi yoki omi, “qovmoq” – haydamoq, “izo” – iztirob, “injitmoq” – xafa qilmoq singari yuzlab xorazmliklarning o‘g‘uz lahjasida ishlatgan, Hozirda ham iste’molda bo‘lgan so‘zlarni uchratishimiz mumkin.

Bundan tashqari, N.ning boshqa asarlarida “isvand – isriq”, “yavg‘an – yog‘siz”, “iri – yirik”, “is – hid”, “yaban – yavan – cho‘l”, “yal-

paq – yoyiq”, “yumruq – musht”, “yumurtqa – tuxum”, “yo‘rinchqa – beda”, “kadi – qovoq”, “katxudo – oqsoqol”, “kat–uxlaydigan oromgoh”, “lachak – ro‘mol” (faqat Sharqda Xorazmdagina ayollar lachak nomli ro‘mol o‘rashgan), “mayruq–majruh–cho‘loq”, “manglay – peshona”, “muft – mut – tekin”, “mug‘anniy – musiqachi”, “oyilmak – ayilmak – xastalikdan o‘z holiga kelish” singari ko‘plab Xorazm shevasiga oid so‘zlar uchraydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Абдуллаев Ҳ. Сўз сеҳри. – Т., 2005.*

D.G‘.

XOQONIY SHIRVONIY (taxallusi; to‘liq ismi: Afzaliddin Ibrohim Xoqoniy Shirvoniy, 1120–1199, Shirvon) – forsigo‘y ozarbayjon shoiri. Otasi Ali ibn Usmon duradgor bo‘lgan. Undan yosh ajralgan Ibrohim o‘z davrining donishmandlaridan bo‘lgan amakisi Umar ibn Kofiddin qo‘lida tarbiyalanib, sarf-u nahv, falsafa, riyoziyot, nujum ilmlarini o‘rganadi. Amakisidan keyin Abul’alo Ganjaviydan she’r-u shoirlik bo‘yicha ta’lim oladi. Abul’alo Shirvonshohlar saroyi shoirlarining peshvosi edi. U X.Sh. va uning do‘sti Falakiyni saroyga jalb etadi. Voqean, bo‘lajak shoirga Xoqoniy taxallusini ham u beradi, o‘ziga kuyov ham qiladi. Bu davrda Sanoiyning “Hadiqat ul-haqoyiq” (“Haqiqatlar bog‘i”) dostoni nihoyatda mashhur bo‘lib, uning ta’sirida Ibrohim bungacha Haqoyiqiy taxallusi b-n she’rlar yozgan.

X.Sh.ning adabiy merosi qasida, g‘azal, qit’a, ruboiy, tarkibband, tarje’band janrlaridagi namunalarni o‘z ichiga olgan devoni va “Tuhfat ul-Iroqayn” (“Iroq tuhfalari”) nomli masnaviydan iborat. 1157-y.da Jamoliddin Abuja’far Muhammad ibn Ali Isfahoniyga bag‘ishlab yozilgan ushbu qasida shoirning Makka, Madina, Iroq, Mosul, Bag‘dodga qilgan safarlari taassurotlarining nazmiy talqini bo‘lib, 3000 bayt hajmida. Olti maqola (har maqola yana fasllarga bo‘linadi) va xotimadan tashkil topgan.

Ma’lumki, XII asr she’riyatida Xuroson va Iroq uslubi yetakchilik qilgan. To‘g‘rirog‘i, Xuroson uslubidan Iroq uslubiga o‘tish boshlangan edi. Iroq uslubi ifoda tarzining murakkabligi va timsollar tizimining serqirraligi b-n ajralib turardi. Ilmiy-falsafiy istiloh-tushunchalarning keng qo‘llanishi o‘quvchi u-n bu uslubdagi she’rlarni tushunishni yanada qiyinlashtirardi. X.Sh. ham Iroq uslubiga mansubligiga qaramay, tabiatan Xuroson uslubiga yaqin edi. Shuning u-n ham atoqli sharqshunos Y.E.Bertels shoir ijodining Xuroson uslubi b-n genetik jihatdan aloqadorligini qayd etgan edi. N.ning Nizomiy va X.Sh. ijodiga muhabbati va ularga izdoshlik qilishining sabablaridan biri ham shunda.

Devoni 17 ming baytdan iborat bo‘lib, 220 qasida, 330 g‘azal, 300 ruboiy, 230 forsiy qit’a va 450 ta arabcha she’rni o‘z ichiga oladi. Sh.Shomuhamedov X.Sh.ning g‘azal va ruboiylaridan namunalar, “Madoyin saroyi” qasidasi va “Tuhfat ul-Iroqayn” masnaviysidan parcha tarjima qilgan. E.Ochilov 200 ga yaqin ruboiylarini o‘zbekchalashtirgan.

N. ijodi Sharq mumtoz so‘z san’atining ko‘plab adabiy chashmalaridan suv ichgani ma’lum. Shunday ilhombaxsh chashmalardan biri – so‘z mulkida mo‘jiza ko‘rsatgan, badiiyat kashshofi bo‘lmish mashhur ozarbayjon shoiri va mutafakkiri X.Sh.ning durdona asarlari hisoblanadi.

“M.Q.” asarida majoziy muhabbat tarannumi ustuvor shoirlar guruhiga kiritgani, “X.”ning nihoyasida Sharqning zabardast so‘z san’atkorlari davrasida tasvirlagani N. X.Sh. asarlari b-n yaxshi tanish bo‘lganligini ko‘rsatadi. “M.L.”da uni qasida ustodlaridan biri sifatida zikr etadi, “xalloqi maoniy” – “ma’nolar ijodkori” deb ulug‘laydi. “N.M.” tazkirasida esa oriflar qatorida zikr etadi. Unda “anga she’r tavridin boshqa tavre bor emishki, she’r aning janbida gum ermish” deydi

va uning so‘fiyona bir she’ridan ikki bayt keltirib, uning bunday so‘zlari ko‘pdir deb yozadi.

N.ning 6 forsiy qasidasini o‘z ichiga olgan “Sittayi zaruriya” (“Olti zarurat”) turkumining oxirgi 2 tasi X.Sh.ga tatabbu’ qasidalar hisoblanadi. “Minhoj un-najot” (“Najot yo‘li”) Avhadiddin Anvariy (1095–1172) b-n birga X.Sh.ga tatabbu’ bo‘lsa, “Nasim ul-xuld” (“Jannat nasimi”) qasidasi X.Sh.ning mashhur “Piri ta’lim” (“Qasidai shiniya”) qasidasiga tatabbu’dir. Turkumdagi barcha qasidalar kabi bu 2 qasida ham mantiqan bir-biriga bog‘liq bo‘lib, “5-qasidada jannatdan badarg‘a bo‘lgan Odam Ato farzandlari bani basharning chin insoniylik – Komil insonga xos bo‘lmagan noxush va nomunosib axloqiy belgilari, nafs yo‘lida qilgan nojoiz ishlari tanqid qilinadi va 6-qasidada ana shu nuqsonlardan qutulishning yo‘li tariqat ekani, tasavvuf va tariqat – Komillikning bosh yo‘li ekani batafsil tushuntiriladi” (N.Komilov). Mutafakkir shoirning o‘zi ham buni “M.L.” asarida qayd etadi: “Bu olti qasida hamdu na’t va sano-yu ma’vizatdur (nasihatdir) va ahli tasavvuf va tariqat tili bila ma’rifat” bayon etilibdir.

X.Sh.ning, xususan, “Qasidayi shiniya”si “iymon nuri sarchashmasi” sifatida nihoyatda shuhrat tutib, unga Amir Xusrav Dehlaviy, Sayfi Isfarangiy, Xoji Kirmoniy, Abdurahmon Jomiy, N., Urfiy Sheroziy, Fuzuliy kabi 50 dan ziyod buyuk so‘z san’atkorlari tatabbu’ qilganlar. N. o‘z qasidasida ularni birma-bir eslab o‘tadi. X.Sh. qasidasi hazaji musammani solim (mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun – V – – – / V – – – / V – – – / V – – –) vaznida yozilgan. N. uning vazni va qofiya tartibini saqlasa-da, mazmunan o‘ziga xos ohorli qasida yaratadi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, uning “Nasim ul-xuld” qasidasi bir paytning o‘zida X.Sh.ning “Qasidayi shiniya” (“Piri ta’lim”), Amir Xusrav Dehlaviyning “Mir’ot us-safo” (“Poklik ko‘zgusi”), Abdurahmon Jomiyning “Jilo ur-ruh” (“Ruh jilosi”) qasidalariga tatabbu’ sifatida yozilgan va Husayn Boyqaroga bag‘ishlangan. Tariqat yo‘lining o‘ziga xos badiiy talqini bo‘lgan ushbu qasida muallif mansub bo‘lgan naqshbandiya talablari asosida yozilganligidan kelib chiqib, uni ayni silsilaning o‘ziga xos dasturi deyish mumkin. “M.L.” asarida shoirning o‘zi “Bu qasidag‘a dog‘i ko‘p maoniy gavhari darj va umr naqdi xarj bo‘lubdur”, – deb yozadi.

“Sharq qasidachiligi aro aloqalar tarixida muhim ahamiyat kasb etgan” “Minhoj un-najot” qasidasi hazaji musammani maqsur vaznida yozilgan bo‘lib, u Anvariy va X.Sh. qasidalariga tatabbu’dir. Unda shoir har biri hikmat darajasidagi pand-u nasihatlarini qizg‘in ehtiros, hassos tuyg‘ular va ohorli timsol-u tashbehlar b-n omixta qilib, go‘zal va ta’sirchan tarzda ifodalaydi. “M.L.” asarida muallifning o‘zi uning mavzusi bobida shunday deydi: “Yana “Minhoj un-najot” qasidasida hidoyat tariqin tuzupmen va zalolat ahliga najot shahrohin ko‘rguzupmen va matla’si budurkim:

Zihi az sham’i ro‘yat chashmi mardum
gashta nuroni,
Jahonro mardumi chashm omadi az ayni insoni.

Tarj.: Yuzing shamidan kishilarning ko‘zi ravshan tortgani na ajoyib! Insoniylik ko‘zi – haqiqati bo‘lganing uchun ham sen jahonning ko‘ziga aylanding.

N. X.Sh.ning 2 qasidasiga tatabbu’ qilgan bo‘lsa-da, negadir, “D.F.”da g‘azallariga tatabbu’lar uchramaydi. Lekin bu hol uning buyuk salafi she’riyatidan bexabarligini ko‘rsatmaydi. Zero, izdosh shoir g‘azallarida ustoz so‘z san’atkorining ba’zi g‘azal va baytlari ta’sirida yozilgan mushtarak misralarga duch kelamiz. Aytaylik, X.Sh.ning o‘z davridan shikoyat qilib: “Bu zamonda vafoning hatto bo‘yi, inson xilqatida esa do‘stlikning rangi qolmadi”, – mazmunidagi:

Dar in ahd az vafo bo‘e namondast,
Ba odam oshnoro‘e namondast, –

singari baytlari N. ijodida mana bunday jaranglaydi:

Dahr bog‘i ichra chun bir gulga yo‘q bo‘yi vafo,
Qilmag‘ay erdi havo ko‘nglum
qushi ul gulga kosh.

Maz.: Bu dunyo bog‘ida biror-bir gulda vafo hidi topilmaydi – qani edi ko‘nglum qushi bunday gulga mayl etmasa!

X.Sh.ning N. ijodiga ta’siri katta va serqirra bo‘lib, bu mavzuni har tomonlama keng va chuqur o‘rganish buyuk mutafakkir va san’atkor shoir oziqlangan chashmalarni bilish u-n ham muhimdir.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Девони Хоқони Ширвони. Дар 2 жилд. – Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.); Инжулар уммони. – Т., 1988; Хоқонии Шарвоний. Қасоид. Ғазалиёт. Ашъори мутафарриқа // Хони маъни. – Душанбе, 2011; Абдураҳмон Жомий. Баҳористон. – Т., 1997; Гулшани адаб. Жилд 1. – Душанбе, 1975; Арасли Х. Хакани ве ярадычылыгы // Хагани Ширвани. Сечилмиш эсерлери. – Бакы, 1956; Бертельс Е.Э. Избранные труды. Низами и Фузули. – М., 1962; Рубоий ва рубоийсароён. – Теҳрон, 1372 (ҳ.-ш.); Комилов Н. Хизр чашмаси. – Т., 2005; Абдуллаев А. “Насим ул-хулд” қасидасида ирфоний ғоялар // ЎТА, 2007, №1; Эркинов С. Алишер Навоийнинг форс тилидаги қасидалари поэтикаси // Адабиёт кўзгуси, № 7. – Т., 2002; Эркинов С. Навоий ва Хоқоний // ЎТА, 2008, №1; Ҳомидий Ҳ. Кўҳна Шарқ дарғалари. – Т., 1999; Очилов Э. Алишер Навоий ва Хоқоний Ширвоний // “Алишер Навоий ва XXI аср” мавзуидаги 8-улусларараро конференцияси материаллари. – Т., 2023.*

E.O.

XRISTOFOR Armeno (Arminiy) (XVI asr) – tarjimon va adib, Yevropa Uyg‘onish davrining vakillaridan biri. Asli Tabriz shahridan bo‘lgan. Italiyaning Venetsiya shahrida yashagan va ijod qilgan.

X.A. N.ning “S.S.” dostonini italyan tiliga o‘girgan va u 1557-y.da Venetsiyada nashr qilingan. Kitob “Sarandib shohining uch navqiron o‘g‘lining X.A. tomonidan italyan tiliga o‘girilgan ziyorati bayoni” degan nom ostida chop etilgan bo‘lib, ikki qismdan iborat. Birinchi qismida Xusrav Dehlaviyning “Hasht behisht” asari tarkibidagi bir hikoya tarjimasi berilgan. N. dostoni kitobning ikkinchi qismidan o‘rin olgan. X.A. asliyat muallifining (ya’ni N.ning) otini ko‘rsatmagan. Tadqiqotchilar asar mazmunidan kelib chiqib, uning N. “S.S.”ining italyancha tarjimasi ekanligini aniqlagan.

X.A. tarjimasida N. asari Italiyada ko‘p marta qayta nashr qilingan. Shuningdek, mazkur tarjima asosida doston Yevropaning boshqa tillariga ham o‘girilgan va chop etilgan. Y.E.Bertelsning qayd etishicha, ushbu kitob Italiyaning o‘zida 1584, 1611, 1622, 1628-yy.da, Bazel va Leypsigda nemis tilida 1888, 1690, 1723-yy.da, 1719-y.da fransuz, 1766 y.da golland tillarida nashr qilinganki, bu hol uning o‘sha davrda katta shuhrat qozongani va keng tarqalganidan dalolat beradi.

X.A. o‘zining yuqoridagi ishi b-n N. ijodini birinchi marta Yevropa ahliga yetkazdi va n.shunoslik tarixida o‘ziga xos iz qoldirdi.

Ad.: *Бертельс Е.Э. Избранные труды. – М., 1965; Бертельс Е.Э. Навои. Опыт творческой биографии. – М-Л., 1948.*

Q.E.

XUDNAMO (XUDNAMOLIK) – Insonga xos salbiy xislatni anglatuvchi jumla. Arabcha so‘z bo‘lib, shuhratparast, maqtanchoq kabi ma’nolarni bildiradi.

N. X. insonlarni “M.Q.”ning bir nechta faslida tanqid qilganini ko‘ramiz. U “Saxovat va himmat” faslida “Mubohot uchun bermak xudnamoliq va aning bila o‘zin saxiy demak behayoliq”, degan nasihatni yozgan. Yoki asarning “Nomunosib noiblar zikrida” noiblarning bu kabi salbiy xislatini jiddiy tanqid ostiga olgan va ularni shoh eshigiga nomunosib deb topgan: “Yolg‘onchi xudnamo noib nisbati musallamayi kazzob millati, nubuvvat tuhmatin o‘ziga solg‘on va Jabroil vahiydin dego-

ni bori yolg‘on”. Munga ham shox xususiyati izhori g‘ayri voqe’ yolg‘on bori... Mundoq noibki, bir bo‘lmag‘an fe’li-yu qavli, shoh eshigidin gum bo‘lg‘oni avli”. Kitobning “Fosiq va badmaosh, bahodirliq lofin urg‘onlar zikrida” N. yana bir “tariqlari-xudnamoliq”qa berilgan tabaqa vakillarini nafrat bilan tasvirlaydi: “Shoh eshigida yormoqni zoye’ qilg‘uvchi jamoatkim, alardin ne Tengrig‘a toatdur va ne shahg‘a itoat. Tariqlari-xudnamoliq va rasmlari-xudoroliq. Ishlari-mastlig‘, varzishlari-xudparastlig‘”.

N. X. insonlar tasviri b-n bog‘liq jihatlarni o‘zining lirik she’rlarida ham mahorat b-n yoritgan. Uning “N.Sh.”dan joy olgan “Xalos” radifli g‘azal matla’siga murojaat qilsak, N. X.ni *xudnamolik* shaklida qo‘llaydi. Shoir g‘azalda soqiyga, jafogarga, o‘ziga murojaatlar qilar ekan, may vositasida nafaqat o‘zini yomonliklardan saqlangan qilib ko‘rsatuvchi, ikkiyuzlamachi, riyokor porsolardan, balki X.likdan ham xalos bo‘lgani xususida mamnuniyat b-n yozgan:

May meni qildi riyoyi porsolig‘din xalos,
Porsoliq yo‘qki, ujbu xudnamoliqdin xalos.

“B.B.” devonida berilgan “Emishtuksen” radifli g‘azal maqta’si oshiq va ma’shuqa o‘rtasida bo‘lib o‘tgan hazilga yo‘g‘rilgan aytishuvga qurilgan bo‘lib, unda o‘qiymiz:

Dedim: “Kamina itingmen”, kulub manga aytur:
“Navoyiyo, ne balo xudnamo emishtuksen?!”

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

B.R.

XUDOYOROVA Munira Baxronovna – 1977-y.da Navoiy viloyati Qiziltepa tumanida tug‘ilgan. 1994–1999-yy.da Navoiy davlat pedagogika instituti O‘zbek filologiyasi fakultetida tahsil olgan. Filologiya fanlari bo‘yicha (PhD, 2022). Ayni paytda Navoiy davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti lavozimida faoliyat yuritadi.

2022 yilda “Alisher Navoiy she’riyatida qit’a janri” mavzusida doktorlik (PhD) dissertatsiyasini himoya qilgan. Dissertatsiyada N. she’riyatida qit’a janrining poetikasi, qit’aning turkiy yozma adabiyotning ilk davrlaridan boshlab XV asrning I yarmigacha bo‘lgan taraqqiyot bosqichlari, zohid, orif, olim, murshid, oshiq, faqir, falon kabi bir qator obrazlar tizimiga va ijtimoiy, axloqiy, irfoniy g‘oyalar, shuningdek, vazn, qofiya, kompozitsiya, tasvir vositalari kabi badiiy xususiyatlarga egaligi asoslab berilgan.

N. qit’alarining XVI–XIX asrlar o‘zbek mumtoz adabiyotida qit’a janri rivoji, qit’alarning ma’rifiy mazmun kasb etishi, timsollar olamining boyishiga ko‘rsatgan beqiyos ta’siri ochib berilgan.

Matbuotda N. hayoti va ijodi, n.shunoslik masalalariga oid 40 ga yaqin maqolalari e’lon qilingan.

Ad.: *Худоёрова М. Алишер Навоий шеъриятида қитъа жанри. Фил.фан.док. (PhD) дисс. – Т., 2022.*

H.A.

“XULOSAYI ABBOSIY” – N. asarlarini o‘qib tushunish u-n XIX asrda Eron Ozarbayjonining hokimi shoh Abbos Mirzo Qojariy farmoni b-n tuzilgan lug‘at. Muallifi – Muhammad Huvayi. Lug‘at 26 bobdan iborat bo‘lib, unda 6000 dan ortiq turkiy so‘z forscha izohlangan.

Muhammad Huvayi bu lug‘atni yaratishda ko‘pgina manbalardan, m-n, Mirzo Muhammad Mahdixonning mashhur “Sangloh”i va XVII asrning eng yaxshi izohli lug‘atlaridan biri – Muhammad ibn Xalaf Tabriziyning “Burxoneqote” hamda N.ning nazmiy va nasriy asarlaridan unumli foydalangan. Shuni aytish lozimki, Muhammad Huvayi lug‘at yaratishda arab, fors va hind lug‘atchilik maktablariga tayangan.

Lug‘at arab alifbosida tuzilgan bo‘lib, 24 bobdan iborat. Boblardagi har bir so‘z arab alif-

bosi tartibiga qattiq rioya qilgan holda joylashtirilgan. “X.A.” fors tilida yozilgan bo‘lib, to‘rt qismdan iborat:

1. Muqaddima (1b-17b-betlar); 2. Chig‘atoycha-forscha lug‘at (17b-189 betlar); 3. Arab, fors va kinoyali so‘zlarning N. asarlarida qo‘llanilgan ba’zi bir jihatlari haqida (189b-203a betlar); 4. N.ning tushunilishi qiyin bo‘lgan ba’zi she’rlariga izohlar (204a-205a betlar).

Lug‘atning asosiy qismini eski o‘zbek tiliga mansub bo‘lgan so‘z va iboralar tashkil etadi.

“X.A.” lug‘atida so‘zlarga izoh 4 usulda berilgan: 1) ekvivalent uslubi; 2) qisqa izohlash; 3) mufassal izohlash; 4) ensiklopedik izohlash.

Lug‘at maqolasi esa quyidagicha berilgan. 1) so‘z; 2) so‘zning fonetik tuzilishi; 3) so‘zning fors tilidagi ma’nosi. Lug‘atda jami 6000 mingdan ziyod so‘z va iboralar keltirilgan.

Mazkur lug‘atning qimmatli tomonlaridan biri, muallif har bir o‘zbekcha so‘zning ma’nosini fors tilida bayon etgan. So‘zning orfografiyasi haqida mukammal ma’lumotlar bergan. So‘ngra turkiy tillardan undosh va, ayniqsa, unli tovushlarning talaffuzini aniq aks ettirishda, ya’ni uning orfoepiyasida, arab harflarining naqadar ojiz ekanligini inobatga olib, barcha chig‘atoy tilidagi unlilar o‘tmishda qanday talaffuz qilingan bo‘lsa, o‘sha holda berishga harakat qilgan. Bunda lug‘at muallifi arab, fors, hind lug‘atshunoslik ilmida keng qo‘llanilgan lug‘aviy terminlar bo‘lmish “ishba’”, “imala”, “sukun”, “muhmala”, “mu’djama”, “mushaddad”, “muxaffaf”, “mu’arrab”, “muharraf”, “tashdid”, “taxfif” kabilardan mahorat b-n foydalangan.

Bu lug‘at o‘tmishdagi ko‘pgina lug‘atnavislarning asarlari u-n manba bo‘lib xizmat qilgan: Pave de Kurteylning “Chig‘atoycha-fransuzcha lug‘at”, Fath Ali Qojariyning 1862-y.da tuzgan “Lug‘at ul-ashroriyya” yoki “Bahjat ul-lug‘at”, Shayx Sulaymon Buxoriyning “Lug‘ati chig‘atoyi va turki usmoniy” hamda Joliz Teodor Zenkerning “Turk-arab-forscha lug‘at”i.

“X.A.” lug‘atining qimmatli omilllaridan eng asosiysi shuki, so‘zlar va iboralar, ayniqsa, fe’llar, ulardan foydalanuvchilarga juda qulay va tushunarli qilib berilgan, zeroki, har bir kitobxon o‘ziga lozim bo‘lgan so‘zni darhol topa oladi.

Pave de-Kurteyl, Fath Alixon, Teodor Zenker va b.lar lug‘at tuzishda “X.A.”dan foydalanganlar. Lug‘atning qo‘lyozma nusxalari Sankt-Peterburg, Parij, Eron kutubxonalarida saqlanadi.

Ad.: *Қодиров Т. Алишер Навоий асарлари учун қимматли манба. Ўзбек тили ва адабиёти, № 5, 1985.*

E.U., S.O‘.

“XULOSAT UL-AXBOR FI BAYON AL--AHVOL AL-AXYOR” (“Yaxshi kishilar hayoti bilan bog‘liq ma’lumotlarning xulosasi”) – Xondamirning 1499-y.da yozilgan va N.ga bag‘ishlangan umumiy tarix haqidagi kitobi. U muqaddima va payg‘ambarlar, podshohlar, davlat arboblari, ilm-fan va adabiyot namoyandalarining hayoti va faoliyati to‘g‘risida hikoya qiluvchi 10 maqoladan iborat. Unda Husayn Boyqaro va N. davrida Hirot va uning atrofida olib borilgan ulkan bunyodkorlik ishlari va ilm-fan, adabiyot va san’at rivoji bo‘yicha amalga oshirilgan tadbirlar xususida ham muhim ma’lumotlar mavjud. Muqaddimada e’tirof etishicha, N. unga o‘z kutubxonasining ixtiyorini topshirgach, 6 oy o‘qib-o‘rganish va izlanishdan so‘ng uni yozib tugallagan. Asar qo‘lyozmalari Kalkutta, Kobul, Toshkent va Istanbulda saqlanadi. U ingliz va fransuz tillariga tarjima qilinib, nashr etilgan. N. hayoti va faoliyati b-n bog‘liq qismlaridan parchalar B.Ahmedov tomonidan o‘zbek tiliga ham tarjima qilinib, “Navoiy zamondoshlari xotirasida” to‘plamida e’lon qilingan.

Ad.: *Ғиёсиддин Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Т., 2015; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985.*

E.O.

XURDADON (f.) – eng mayda narsalargacha biluvchi, nozikfahm, zehni o‘tkir, zakovatli.

Ishlarning nozik va mayda jihatlarini biluvchi, nuktadon, dono. Hamma narsaning mohiyati va haqiqatini biluvchi; nozikta'b, o'tkir ko'z. Teran tafakkur va nozik taxayyul sohibi. N. ijodida ham yuqoridagi ma'nolarda qo'llangan. M-n:

Tab' ganjidin maoni xurdasin, yuz qatla hayf
Kim, nisor etmakka shohi xurdadone topmadim.

N. bu sifatni ko'proq Husayn Boyqaroga loyiq ko'radi:

Ey Navoiy, xurdayi nazmingg'a isloh istasang,
Shohi G'oziydin jahonda xurdadonroq yo'q kishi.

Ba'zida hammadan ayb topadigan kishini ham aytishadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Фарҳанги забони тожик. Жилд 2. – М., 1969; Бурҳони қотеъ. Жилд 1. – Душанбе, 1993; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. – Т., 1984.*

E.O.

XUROSON (f.) – tarixiy-geografik hudud. Hozirgi Eronning shimoli-sharqiy, Turkmanistonning janubiy va Afg'onistonning shimoli-g'arbiy qismlarini o'z ichiga olgan. X. so'zi serquyosh o'lka ma'nosida ham tushuniladi. XIV–XV asrlarda X. Amudaryoning chap tomonidagi hududlarni anglatgan. Mazkur mintaqa qadimgi davrdan boshlab boy, obod, rivojlangan madaniyatga ega hudud hisoblangan. XIV asrning oxirgi choragidan boshlab X. Amir Temur saltanati tarkibiga kirgan. Husayn Boyqaro davlatining asosiy qismini X. tashkil etgan. N.ning hayoti va faoliyati ham X. b-n bog'liq. Ulug' shoir o'sha davrda X.ning markazi bo'lgan Hirotda tug'ilgan va ayrim yillarni hisobga olmaganda uning butun hayoti shu yerda o'tgan. N. X.ning mazkur davrdagi siyosiy-ijtimoiy, madaniy-adabiy hayotiga katta ta'sir ko'rsatgan. XIV asrning ikkinchi yarmida X.da yuz bergan yuksalish, madaniyat va adabiyotning gullab-yashnashi N. nomi b-n bog'liq. Uning adiblarga, ilm ahliga, san'atkorlarga ko'rsatgan homiyligi, N. yordami va qo'llab-quvvatlashi tufayli yetishib chiqqan rassomlar, shoirlar, olimlar, ularning dunyo fani va madaniyatiga qo'shgan hissalari haqida yozilgan va bu barchaga ma'lum. N. X.ning turli yerlarini obod qilishga ulkan hissa qo'shgan, jumladan, Hirot, Mashhad, Nishopur, Marv, shaharlarida bunyodkorlik ishlarini amalga oshirgan.

X. N. ijodida ham o'ziga xos o'rin tutadi. Buyuk shoir X.ga juda katta mehr b-n qaragan va uni asarlarida madh etgan. "H.A." dostonining 19-maqolati X. va Hirot ta'rifiga bag'ishlangan. Bobning nasriy sarlavhasi quyidagi so'zlar b-n boshlanadi: "Xurosonning adimul misl kishvari bayonidakim, "Irama zot zotil-imodil-lati lam yuhlaq misluho fil-bilod" karimasi oyatedur aning sha'nida... "Mazkur bobda N. X.ning geografik joylashuvi, shaharlari, tog'lari, tabiati va boshqa xususiyatlarini chuqur badiiyat b-n yo'g'rilgan misralarda ta'riflaydi. O'rta asrlarda Sharqdagi geografik tasavvurlardan kelib chiqqan holda shoir X.ni to'rtinchi iqlimda joylashgan, deydi va bu iqlim haqida shunday misralar bitadi:

Yerda bu iqlim erur dilpazir,
Ko'kda quyosh toramidek benazir.
Bo'ldi chu mavzu' masohat fani,
Dedilar iqlimi chaxorum ani.

N. tasvirida X. jannatga o'xshagan, obod bir yurt. Uning hududida shaharlarning son-sanog'i yo'q. X.ning tog'lari oldida osmon xuddi dashtdek. Bu tog'larning bag'rida konlar bo'lib, ular turli javohirlarga to'la. N. X.ning dashtlari, o'simliklarini ham tavsiflaydi va "yetti iqlim tana, Xuroson uning siynasidir" deya xulosa qiladi:

Yetti falak naqdig'a ganjina ul,
Yetti aqolim tan-u siyna – ul.

Shoir X.ning tabiati, go‘zal shahar va qishloqlari bilangina emas, iste’dodli, qobiliyatli insonlari b-n ham faxrlangan. U “M.N.”da ularning ko‘plarini zikr etgan. “M.L.” asarida N. X.ni “Xuroson mulkikim, fazl-u kamol ahlig‘a olam mamolikining Misri muazzami va savodi a’zamidur” deb ta’riflagan va o‘ttiz yildan ortiq, qirq yilga yaqin davr mobaynida bu yerdan yetishib chiqqan ijodkorlarning katta qismi b-n hamkorligini, ularning asarlari yuzasidan fikrlar bildirib, maslahatlar bergan, adabiyotga, ijodga doir turli masalalar xususida bahslar, munozaralar bo‘lganda ko‘pchilik uning fikrini qabul qilganini mamnuniyat b-n qayd etgan.

Shoir ijodida X. mavzusi faqat yuqoridagilar b-n cheklanmaydi, “S.I.” dostonining 35-bobida ham N. Iskandarning jahonni egallashi u-n qilgan yurishlari munosabati b-n yana X. va Hirotga to‘xtaladi, bu o‘lkaning go‘zalligi va obodligini yana madh etadi.

N.ning yozishicha, X.ning ob-havosi Iskandarning mijoziga yoqqan va unga zavq bag‘ishlagan:

Xuroson havosida topti nishot,
Mizojiga yuzlandi ko‘p inbisot.

Bobda X.ning kengligi, uning hududida buloq va daryolar tasvirlanadi, xususan, N. bu mintaqaning obodligini ta’minlovchi to‘rt daryo – Hirmand, Darijaz, Murg‘ob va Chahcharonni bir-bir tilga oladi va ta’riflaydi. X.ga maftun bo‘lgan Iskandar bu yerda shahar qurishga farmon beradi va unga Hirot deb ot qo‘yadilar.

Bobning X.ga bag‘ishlangan qismini muallif ushbu o‘lkaning hech qachon zavol ko‘rmasligi haqidagi ezgu tilaklar ifodalangan misralar b-n nihoyalaydi:

Alo, toki bo‘lg‘ay sipehr uzra mehr,
Yoruq mehr nuridin o‘lg‘ay sipehr.
Anga bo‘lmasun mehr yanglig‘ zavol,
Sipehr etmasun xalqin oshuftahol.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; ЎзМЭ. 9-жилд. – Т., 1997.*

Q.E.

XUROSONIY Ali Muhammad (taxallusi; ismi: Muhammadiev Ali) (29.10.1950, Tojikiston Respublikasi Panjakent tumani) – tojik adabiyotshunosi, sharqshunosi. Dushanbe DUni tugatib (1972), Tojikiston FA Sharqshunoslik institutida ish boshlagan va hozirgacha shu yerda faoliyat ko‘rsatadi. 1999-y.dan Tojikiston adiblar ittifoqi a’zosi.

X. Tojikistondagi ko‘zga ko‘ringan n.shunoslardan biri hisoblanadi. U, asosan, N. va fors-tojik adabiyoti mavzusida hamda “Devoni Foniy” bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib boradi. “Mavlono Jomiyning Alisher Navoiy qasidalariga ta’siri” (2004), “Alisher Navoiy-Foniyning Nizomiy Ganjaviy ijodi misolida fors-tojik adabiyotidan ta’sirlanishi” (2010) maqolalari shular jumlasidandir. N. tavalludining 550 yilligi munosabati b-n u 1990-y.da “Do‘stona munosabatlar hamda Jomiy va Navoiyning adabiy aloqalari” nomli tadqiqot yaratgan. Unda ikki buyuk so‘z san’atkori hayoti va ijodi, o‘zaro hamkorligining muhim qirralari o‘z aksini topgan. 1991–1992-yy. larda esa “Abadiy do‘stlik”, “Nuktadonlik muhiti g‘avvosi”, “Foniy, senga agar Xusrav-u Hofiz rahnamo bo‘lsalar...”, “Forsiyda edi...”, “Tafakkur haykali”, “So‘z san’ati ustalari sohibdillardir”, “Hofizga jo‘rovozlik” kabi maqolalarini e’lon qildi. “D.F.”dagi ruboiylar va “S.Z.”dan 2 qasidani chop ettirdi. 1993-y.da esa “D.F.”ni salmoqli muqaddima b-n 320 safiha hajmida fors alifbosida nashr qildi.

Ad.: *Муносибати дўстонаву равобити эҷодии Ҷомий ва Навоий. – Душанбе, 1990; Меҳру Муштарий (мажм.мақолаҳо). – Душанбе, 2010; Ахтарони адаб. Жилд*

1. – Душанбе, 2008–2018; Девони Фоний. – Душанбе, 2018; Гулшани адаб. 3-жилд. – Душанбе, 1976. Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 3. – Душанбе, 2004; Энциклопедияи миллии тожик. – Душанбе, 2011; Ражабов Ҳ. Кўлвори пурбори муҳаққиқ // Адабиёт ва санъат, 20.10.2016.

E.O.

XURRAM – N. muammolarida yashiringan so‘z yoki ism. Biron nom yoki muayyan ma’noga dalolat qiluvchi “kalomi mavzun”, ya’ni “vaznli so‘z” baytlar tarkibida berkitilishi she’rning qiziqarliligini oshirib, kitobxonni mushohadaga chorlaydi. Ijodkor misralar qatiga ustalik bilan yashirgan nomni topish, anglab yetish o‘quvchida zavq uyg‘otadi. N.ning forsiydagi mazkur she’rlari rang-barang ismlarni qamrab olgani bilan xarakterli bo‘lib, “D.F.”dagi bir muammo X. ismiga bag‘ishlangan:

Kosaho dorad chu soqiy, avvalash xoham zi xum,
V-ar diram boshad, tama’doram zi sonivu seyum.

Tarj.: Soqiyning kosasi bo‘lsa, xumdan birinchisini istayman, Agar tangam bo‘lsa, ikkinchi va uchinchisini tama’ qilaman.

M.E.: مخ – “xum”ning avvali خ harfi, هرد – “diram” – tanganing ikkinchi va uchinchi harflari, qo‘shsa, هرخ X. ismi hosil bo‘ldi. Muammo yechishning a’moli tashili intiqod uslubiga tayanilgan ushbu yechimda harflarni tartibi b-n saralashga amal qilinadi.

“R.M.”dagi 179-raqam ostida ham “X.” ismi berkitilgan. Mazkur muammoda mayxona piri muhtasibg‘a ta’zir berib, uning qo‘lidagi darrasini tortib olgani va uning dastasi va uchini kesib, xum ichiga tashlagani so‘z o‘yini orqali tasvirlangan:

Piri dayri mo zi dasti muhtasib chun darra kand,
Dastavu no‘gash burid on gohash
andar xum fikand.

Tarj.: Bizning mayxona pirimiz muhtasab qo‘lidan darrasini yulib oldi, Dastasi va uchini kesib, uni xum ichiga tashladi.

Muammo isqot qoidasiga ko‘ra yechiladi: “Darra” مرد ning dastasi د harfi va ه uchi harflari kesib olinsa, ر harfi qoladi. Uni “xum”مخ – ichiga tashlansa, هرخ X. ismi hosil bo‘ladi.

Ayni nomdagi ikki muammoni mazmun va yechimiga ko‘ra turli usullarda bitgan N. o‘z devonini bir xillik va xilma-xillik mezonlariga ko‘ra ham betakror bezagani ma’lum bo‘ladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Девони Фоний. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Зоҳидов Л. Алишер Навоий ижодида муаммо жанри / Масъул муҳаррир: Эркинов С. – Т., 1986; Зоҳидов Л. Алишер Навоийнинг “Рисолаи муфрадот” асари ва унинг муаммолари: Ф.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. – Т., 1970.*

S.R.

XUSRAV (f.) – N.ning “F.Sh.” dostoni qahramoni. Qadimgi Eronning Sosoniylar sulolasiga mansub hukmdor Xusrav II Parvez (hukmronlik yillari – 590–628) bu qahramonning prototipi bo‘lib xizmat qilgan. Xalq og‘zaki ijodiga mansub asarlarda, yozma adabiyot namunalarida, xususan, Nizomiyning “Xusrav va Shirin” dostonida u o‘tmish davri hukmdorlarining namoyandasi sifatida tasvirlangan. Qator ilm-u hunarlardan bahramandligi tufayli X. aql-u tadbir b-n hukm yuritib, saltanatini mustahkamlaydi, lekin keyinchalik aysh-u ishratga berilib, tubanlikka yuz tutadi. Ishq-u vafo yo‘lida ustuvor emas. Farhod go‘zal axloqi va ishq bobidagi sadoqati b-n uni mot qiladi. X. umrining oxirida Shirin ta’sirida yaxshi tomonga o‘zgarib, yana adl-u adolat yo‘lini tutadi, lekin o‘z farzandi Sheruya tomonidan o‘ldiriladi.

X. N.ning “F.Sh.” dostoni voqealar rivojiga 36-bobdan kelib qo‘shiladi.

Sharq xalqlari og‘zaki va yozma adabiyotida uning Shirin b-n muhabbat dostoni afsona va rivo-

yatlar, doston va qissalar tarzida keng tarqalgan. X. va Shirinning sevgi qissasi “Xamsa”larning asosiy dostoni qatoridan o‘rin olgan. Lekin N. mavjud an’anani yangilab, Farhodni asosiy qahramon qilib oladi.

N. dostonida X. Mag‘rib, ya’ni Eron hukmdori bo‘lib, Madoyin uning poytaxti. Bir qancha o‘g‘illari bo‘lishiga qaramay, birortasi taxtga loyiq emas edi. Shuning u-n umri o‘tib borayotgan shoh o‘rniga munosib valiahd qoldirish maqsadida o‘ziga mos malika axtaradi va Shirinning xabarini topib, unga sovchi jo‘natadi. Lekin Mehinbonu Shirinning er zotiga mayli yo‘q degan javob b-n X. sovchilarini ortiga qaytaradi. X. yana bir necha marta sovchi yuboradi, lekin sovchilar har gal quruq qo‘l b-n qaytadilar. Shundan so‘ng X. qahr-u g‘azabga minib, arman yurtiga qo‘shin tortib keladi. Buni bilgan Mehinbonu qal’ani yaxshilab mustahkamlagan, oziq-ovqatni ham zaxira qilgan edi. X. qal’aga kirolmay, uni qamal qilib yotadi. Farhod bir tosh uzra manzil tutib, Eron qo‘shiniga eng ko‘p xavf tug‘diradi. U uzoqni mo‘ljallab otgan ulkan toshlar tufayli dushmanlar qal’aga yaqinlasholmaydilar. U hatto tosh otib, X. tug‘ining mahchasi (bayroq uchiga o‘rnatilgan oltin yoki kumushdan yarim oy shakli)ni uchirib yuboradi. Farhodni yo‘qotmay, qal’a fathi muyassar bo‘lmasligiga ko‘zi yetgan X. vaziri Buzurg Ummid b-n maslahatga ko‘ra bir makkor hiylagarni yollaydi. U behushdori b-n Farhodni uxlatib qo‘yib, X.ga tutqun qilib beradi. Hushiga kelmay turib uning qo‘l-oyog‘iga kishan solib, o‘ziga keltiradilar. Farhodning shukuh va salovati X.ni xavotirga soladi.

X. va Farhod munozarasi – dostonning eng muhim o‘rinlaridan biri. Bu orqali shoir o‘zining ishq haqidagi konsepsiyasini ilgari suradi – shoh va gadoning ishqdagi mavqeyini ko‘rsatib beradi.

Dedi: Nedur sanga olamda pesha?
Dedi: Ishq ichra majnunluq hamisha...

Dedi: Qay chog‘din o‘ldung ishq aro mast?
Dedi: Ruh ermas erdi tang‘a payvast...

Dedikim: Shahg‘a bo‘lma shirkatandesh!
Dedi: Ishq ichra tengdur shoh-u darvesh!

Farhodning X.ga o‘zini teng tutib dadil gapirishi, savollariga asosli javoblari b-n uni mot qilishi shohning qahr-u g‘azabini qo‘zg‘atib, hukmdorga bo‘ysunmaslikning oqibati nima b-n tugashini ko‘rsatib qo‘yish va bu ish barchaga ibrat bo‘lishi u-n uni avval dorga osib, keyin gulxanda yoqib, kulini ko‘kka sovurmoqchi bo‘ladi. Lekin “ruxsorida valoyat nuri zohir”ligi u-n Farhodni o‘ldirishga jur’ati yetmaydi va baland tog‘ ustidagi eng xavfli jinoyatchilar u-n barpo qilingan mustahkam Salosil qo‘rg‘oniga bandi qiladi.

Manbalarda aytilishicha, X. misli ko‘rilmagan boyliklarga ega bo‘lgan va hech bir podshohga nasib bo‘lmagan hashamatda yashagan. Zamondoshlarida katta taasurot qoldirgan ushbu shaxsning nomi keyinchalik badiiy adabiyotga ham kirib kelgan, xususan, Nizomiy va Xusrav Dehlaviy dostonlarida bosh qahramon sifatida tasvirlangan. Sosoniylar sulolasi vakili sifatida X. N.ning “T.M.A.” asarida ham zikr etilgan. N.ning yozishicha, X. o‘z o‘g‘illirini tutqunlikda saqlagan, yigirma ming kishini zindonga solgan, ko‘p kishilarni qatl qilgan. Umuman, “F.Sh.”dagi X. obrazi b-n uning prototipi o‘rtasida bir qator umumiylik mavjud.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Эркинов С. Навоий “Фарҳод ва Ширин”и ва унинг қиёсий таҳлили. – Т., 1971; Зохидов В. Мир идей и образов Алишера Навои. – Т., 1961; Ўзбек адабиёти тарихи. 5 жилдлик, 2-жилд. – Т., 1977; Жалолов Т. “Хамса“ талқинлари. – Т., 1960; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 3. – Душанбе, 2004.*

Q.E.

“XUSRAVE TARH ETTI...” – N.ning “L.T.” dostonidagi LIX bobda keltirilgan 15

baytli illyustrativ hikoyat. Undan oldingi qismda Shunqor b-n Hudhud o‘rtasida shohlik masalasida bahs vujudga keladi va Shunqor o‘zining podshohligini aytib, shohga ehtiyoji yo‘qligini izhor etadi:

Boshima oltun tumog‘a toji zar,
Chun meni haq bo‘yla qilmish tojvar.

Sen chun voqifsen bori holotima,
Xayl aro ham zotima ham otima.

Xo‘b emas bir shah qo‘yub boshig‘a toj,
O‘zga shahga zohir etmak ehtiyoj.

Shundan so‘ng Hudhud shunqorga javobida unga bir hikoyat aytib beradi. Hikoyatga ko‘ra, bir podshoh o‘z mamlakatida nimadir munosabat b-n bayram e’lon qiladi. Butun mamlakat quvonchga to‘lib, shodiyona qiladi. Bundan foydalangan bir “qaltabon”(hamiyatsiz, razil, pastkash) qamishdan ust-bosh kiyib, qo‘lida qamishdan qalqon, o‘qdon va bayroq tutib, atrofdagilar o‘rtasida o‘zini “podshohe bo‘ryo” deb e’lon qiladi. U o‘zini “shohi kishvar oyin” deb bilib, hamsuhbatlari b-n birga podshoh saroyidagi rasm-odatlarni masxaralab, kulgi qiladi.

Jam’ aro bir qaltaboni behayo,
Otin aylab podshohi bo‘ryo.

Bo‘ryodan sar-basar kisvat anga,
Sodog‘-u qalqon ila royat anga.

O‘zidek yosab nechani yor sara,
Yo‘q sara, necha laimi masxara.

Bazm maydoni alarg‘a jilvagoh,
Zohir aylab bid’ati har dam taboh.

Xursandchilik mavsumi tugagach, podshoh odamlaridan bir necha kishi kelib, uning “chatri”ni buzib, bo‘yrasini yoqib, “toji” b-n boshiga tushiradilar. Shundan keyin uning qanday “podshoh”ligi ayon bo‘ladi. Muallif bu timsol b-n taxt va amalga ruju qo‘ygan shaxslarni hamda ruhiyatdagi amalparastlik illatini qoralaydi. N.ning aqidasiga ko‘ra, podshohlik ishi dunyodagi eng ma’suliyatli vazifa. Shuning u-n u hikoyatda ba’zi kimsalarga xos o‘rinsiz hazil, taqlidchilik, kaltabinlikni fosh etib, har kim o‘ziga munosib ish b-n shug‘ullanishi, qo‘lidan keladigan ishni qilishi kerak, degan g‘oyani yumor yo‘li b-n, “soxta podshoh” timsolida ilgari surgan. Zero, mazkur obrazni ruhiyatdagi ayrim qusurlarga va ayni paytda jamiyatdagi muayyan illatlarga muqoyasa qilish mumkin. Bu ko‘pma’nolilik xususiyati dostonning badiiy quvvatini oshirgan va N.ning tasavvufdagi maslagi – naqshbandiya g‘oyalarining targ‘ibi u-n muhim ahamiyat kasb etgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Бертельс Е.Э. Избранные труды. Суфизм и суфийская литература. – М., 1965; Мамадалиева З. Алишер Навоийнинг “Лисон-ут тайр” достонидаги рамзий образлар тизими. – Т., 2016.*

S.O‘.

XUSRAVIY (XV asr) – fors-tojik tilida ijod qilgan hirotlik shoir. N. “M.N.”ning 2-majlisida bergan ma’lumotiga qaraganda, X. da’vosi baland, biroz kattazang, o‘jar kishi bo‘lgan. Bunga qaramasdan, u N.ning oldiga o‘z she’rlarini olib kelib, munosabatini so‘rar ekan. Ammo uning fikrini eshitishdan avval o‘z she’rlari haqida balandparvoz so‘zlar b-n gap boshlar va natijada N. e’tiroz bildirishiga o‘rin qolmas ekan. Tazkirada X. devonidagi g‘azaldan bir bayt keltirilgan:

Zi la’li yor dandone giriftam,
Hayote yoftam, jone giriftam.

Tarj.: Yorning la’li(labi)dan bo‘sa oldim-u, tiriklik topdim, jonga ega bo‘ldim.

N. fiqra so‘nggida X.ning Hirotda vafot etgani va o‘sha yerda dafn qilingani xabarini bergan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

S.O‘.

XUSRAVIYA – N. Marv shahrida qurdirgan madrasa. Xondamir Mirzo Kichik nomi b-n mashhur bo‘lgan Husayn Boyqaroning jiyani (egachisining o‘g‘li) Muhammad Sulton binoning birinchi g‘ishtini qo‘ygani u-n uning X. deb atalgani haqida yozadi. Ayni paytda, X. jumal hisobi b-n uning qurilish yili tarixini ham bildiradi.

Ad.: *Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985.*

M.A.

“XUSRAVI SOHIBQIRON” (“JAMSHIDI SOHIBQIRON”) – unvon, e’tirof. N. asarlarida bu ibora – unvonlar ko‘p o‘rinlarda Sulton Husayn Boyqaroni ta’riflash maqsadida ishlatilgan. M-n:

Qiron qilding, Navoiy, nazm arokim, iltifot etmas So‘zungdin o‘zga so‘zga xusravi sohibqiron hargiz.

“...To bu farxunda zamon va xujasta davronkim, – bu jamshidi sohibqiron saltanat taxtin oldilar?...

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011.*

A.A.

XUTBA (ar. – targ‘ibot, nutq) – juma namozlarida, diniy bayramlarda xatib tomonidan o‘qiladigan va’z. Bunda Allohning birligi va Muhammad (s.a.v.) uning payg‘ambari ekanligini yodlab o‘qish barobarida podsholik taxtida o‘tirgan shaxsning nomi ham tilga olingan. Husayn Boyqaro taxtga o‘tirganida bir guruh zalolatpeshalar X.ga shialarning 12 imomi nomini qo‘shib o‘qitish, xulafoyi roshidin nomlarini esa olib tashlashni maslahat beradilar. Lekin u Jomiy b-n maslahatlashib, X.ni odatdagi dastur bo‘yicha o‘qishni buyuradi va uni o‘zgartirishga uringanlarning ra’yini rad etadi. N. she’riyatida ham X. so‘ziga turli maqsadlarda ko‘p murojaat etilgan. M-n:

Kishvar anga nur-u safo xittasi,
Anshi etib hamd-u sano xutbasi.
Xutbayi joshingni o‘qub Mushtari,
Kursiyi nuhpoya aning minbari.

Muayyan podshoning siyosiy hukmronligining e’tirof etilishi uning nomi X.ga kiritilishi-kiritilmasligi b-n belgilangan. N. “M.”ning Badiuzzamon mirzoga yozgan 56-maktubda shahzodaga turli hayotiy masalalarda tanbehlar bitar ekan, shulardan biri shahzodaning X.da otasi Husayn Boyqaro nomini olib tashlagani haqidadir. Chunonchi “Mirzoga Temurbek to‘rtunchi nasabdur. Mirzo xutbada bekning otig‘a sharif ruhig‘a masjidi jome’da har odina kuni duo qildururlar. Bu ishda Mirzog‘a ham duodin o‘zga ne kelgay. Siz nishoningiz tug‘rosidan Mirzoning muborak otin chiqorursiz. Kerak Iroqdin Makka, balki Mag‘rib zaming‘acha olsangiz bu voqea bo‘lmas erdi”.

N. “M.N.”, “N.M.” kabi asarlarida ham xutba haqidagi hayotiy hodisa va badiiy lavhalarni yozib qoldirgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Муншаот. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ислом. – Т., 2004; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. – Т., 1984.*

E.O.

XUFFOSH (XAFFOSH) – tunda uchuvchi parranda, ko‘rshapalak. Bu istilohni mashhur tasavvuf olimi Shahobiddin Suhravardiy (1153–1191) ilmiy muomalaga kiritgan bo‘lib, u go‘yo g‘ofillik va qalbi ko‘rlikni ifodalaydi. Badiiy adabiyotda X. orqali yaqqol ko‘rinib turgan haqiqatlarni anglash va qabul qilishga qobil

bo‘lmagan aqli qosirlarga ham ishora qilinadi. N. she’riyatida X. Yaratgan vasliga yetolmay, hijron dardida kechalari bedor bo‘lgan oshiqqa ham o‘xshatiladi. X. qancha urinmasin quyosh yuzini ko‘ra olmaganidek, oshiq ham firoq o‘tida kuyishga mahkum, demoqchi bo‘ladi N.:

Mumkin ermas chun quyosh vasli kecha xuffoshqa,
Ey ko‘ngul, ul yon necha hijronda parvoz etkasen.

Mutafakkir shoir Yaratgan zotini idrok qilishda aqlning ojizligini ham X.ning quyoshni ko‘rolmaslik qismati b-n muqoyasa qiladi:

Xirad gar a’mo esa kunhi zoting ichra ne tong,
Quyoshni ko‘rmasa xuffosh bordurur ma’zur.

Tarj.: Ko‘rshapalakning quyoshni ko‘rishga ojizligi ma’zur tutilganidek, aql ham Haq zotining mohiyati idrokiga ko‘r bo‘lsa, buning sira ajablanadigan joyi yo‘q.

Shoir zehniyati qosir, fahm-u donishdan yiroq kimsalarning hayot mohiyatidan mosivo umr kechirib, yetuklik maqomiga yetolmasligini X.ga o‘xshatadi:

Ko‘r bilmas yorug‘ ekanni quyosh,
Kunduz uchmog‘ g‘arib erur xuffosh.

N. navqironlikni quyoshga, umrning keksalik pallasini esa tun qorong‘uligiga qiyos etar ekan, oshiqning ma’shuqa surati-yu siyratiga asir ekanligini X.ning tun zulmatidan ayrila olmasligi b-n taqqoslaydi:

Sen quyosh yanglig‘ yorub subhi shabob ayyomida,
Bizga tundek tiyralik qismat qarilig‘ shomida.
Tun savodinda magar xuffoshlar parvozidur,
Muztarib jonlar qushi shabrang zulfung domida.

Tasavvufda zuhd voz kechish, tark etish, qiziqmaslik va e’tibor bermaslik ma’nolarni anglatishi ma’lum. Zohid o‘z amali b-n Allohning roziligini topib, jahannam azobidan qutulishni maqsad qiladi. Badiiy adabiyotda zohidning uzlati va xalqdan yiroqlashishida riyo va kibr bo‘lishi mumkinligi aytilib, tanqid qilinadi. N. ham bu olamning asosi ishq ekanligini ta’kidlab, zuhd ahlining muhabbat nurini ko‘ra olmasligini X. holatiga tashbeh qiladi. M-n:

Zuhd xuffoshi ocha olmasa ko‘z, kimga gunah,
Ishq xurshidi yorutmish chu azaldin to ba abad.

X. timsoli N. dostonlarida ham uchraydi. “S.I.”da 19-bob Iskandarning otasi vasiyatiga ko‘ra, taxtni egallashga majbur bo‘lgani va adolat b-n siyosat yuritgani bayon qilinar ekan, bob sarlavhasida *“...aning adli aynining quyoshi bila zulm shomining xuffoshin ko‘r etib, jahonni yorutqoni va zulm ahlining zulmatdek olam yuzidin qiroq tutqoni”,* deyilib, zolim amaldorlar zulmi X. timsolida jonlantirilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. ТАТ. 10 жилдлик, 1-10-жилдлар. – Т., 2011; Сажжодий. Фарҳанги истилоҳот ва таъбироти ирфоний. – Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.).*

M.A.

“XUSH KO‘RURMEN DAHRNI SOVUG‘ SUV BIRLAKIM BU YOZ...” – N. qit’asi:

Xush ko‘rurmen dahrni sovug‘ suv birlakim,bu yoz
Bo‘ldi issig‘din quyosh ko‘zlarga jarrisaqari.
Bir ayoq muzluk suv jomi Jamdurur, nevchunki bor
Bir ayog‘ og‘ziricha muz oynai Skandari.

Yoz oyi. Havo issiq. Shu qadar issiqki, odam faqat muzday suv nafasi b-n jon saqlab biladiganday. U go‘yo borliqning asosiy fayzi va farog‘ati. Uningsiz tabiat xush ko‘rinmaydi. Quyosh ko‘kdan olov purkaydi. “Xush ko‘rarmen dahrni sovug‘ suv birlakim...” degan lirik qahramonning istagi, o‘ylaymizki, yoz alangalarida toblangan har bir o‘zbek u-n anglashilarli.

Osmon lov-lov yonar oftob qo‘ridan,
Ufqda sarobdan otashin baldoq.
Chinqirib yuborar kunning zo‘ridan
Qaygadir berkinib olgan chirildoq.

Ko‘ryapsizki, Abdulla Oripov bitgan bu satrlarda xuddi N. fikrlari davom ettirilganday. Ular hazrat N. tasviridagi manzarani boyitadi. Muqoyasa qilgingiz keladi. Yana Abdulla Oripov misralari yodga tushadi:

Butun olam go‘yo ulkan doshqozon,
Qaydadir – ko‘rinmas uning naryogi.
Bu qaynoq qozonni kuzatmoq oson,
Ichiga tushmoqlik osonmas chog‘i...

O‘shanda bobokalon shoirimiz tasavvurida ham olam ulkan bir “doshqozon”ga aylanmaganmikan, deysiz. Bir piyola “muzluq suv”ni jomi Jamshidga, shu piyola og‘irligicha muzni oynayi Iskandarga tenglashtirgan (garchi bu mubolag‘ali qiyos bo‘lsa-da) shoir yoz issig‘i junbushga kelgan paytlarda manglayi “ter bilan qotib”, berahm otashga chidagan zahmatkash dehqonning ahvolini xayoldan forig‘ etganiga mutlaqo inonmaysiz. Shunda beixtiyor Hirot atroflaridagi “Nogahon falakka urgan kabi do‘q” so‘zsiz qotib turgan “bo‘ychan teraklar”, “Birovdan xijolat bo‘lgan kabi” dami ichida “yer chizib” turgan tollar, “butaning tagida” hayratga cho‘mgan bo‘zto‘rg‘ay va “shoxchadagi qushcha”lar ko‘z oldingizda gavdalanadi. Axir, siz bularni hech vaqt borib ko‘rmagansiz, bilmagansiz. Bu xayoliy sayohat va guvohlikning siri nimada? She’riy mantiqning kuchi va uyg‘unligida. Tasvir va manzaraning tabiiy tarzda bog‘lanishida!

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Ҳаққул И. Касби камол ўзни танишдир. – Т., 2021.*

I.H.

“XO‘B EKAN CHOG‘DAKI MUSTAG‘-NI EDING, KELMAS EDING...” – N.ning “N.Sh.” devoniga kiritilgan qit’asi:

Xo‘b ekan chog‘daki mustag‘niy eding,
kelmas eding,
O‘tti chun xo‘blug‘ung javr manga yetkurma.
Ko‘p kelur vaqtu oz kelmaking emgatti meni,
Oz kelur vaqtda ko‘p kelmak ila o‘lturma.

Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston”ida shunday hikoyat bor: Bir darvish shon-shuhratli bir podshoh b-n tez-tez uchrashib, yoqimli suhbatlar qurishar ekan. Kunlardan birida shoh yuzida qandaydir malollik izlarini sezibdi-yu, buning sabablarini o‘zicha mushohada qilibdi. Lekin tez-tez kelishidan bo‘lak sabab topmabdi. Shundan boshlab, shoh huzuriga qatnashni to‘xtatibdi. Oradan ancha vaqt o‘tibdi. Shoh-u darvish yo‘lda uchrashib qolishibdi. “Ey darvish, – debdi hukmdor, – nechun mendan aloqani uzding, kelish-ketishdan qadaming nega tiyildi?” O‘shanda darvish: “Mening kelishimdan chehrangda malol ko‘rgandan, “Nega kelmaysan?” – deya savol eshitish yaxshiroq ekanini angladim”, – degan ekan.

Odamlararo bordi-keldi ko‘pchilikka juda jo‘n ish tuyulishi mumkin. Aslida esa bunday emas. Darvishning zukkoligi shundaki, muomala-munosabatdagi zo‘rma-zo‘rakilik, ichki samimiyatsizlikni paytida sezib, vaqtida insoniy qadri va nafsoniyati muhofazasi haqida o‘ylay olgan. Aks holda, u shoh oldida kundan-kun o‘zini kamsitaverardi. Borish-kelish – mehr, harakati, bir qalbning ikkinchi bir qalb b-n uchrashish sog‘inchi, ma’naviy-axloqiy birlik fursati. Bularni chuqur fahmlamagan kimsalar Zahiriddin Muhammad Bobur aytganiday, goho borish-kelishini “lutf etib”, do‘st-u birodarlarini o‘ksitsalar, ba’zan ularda yoqimsiz taassurotlar paydo qiladilar. Mana N. tomonidan tanqid qilingan kimsani olaylik. Uning turmushi farovon, ishlari yurishgan chog‘ida atayin tortinchoqlikka berilgan – borish kerak bo‘lgan joyga bormagan. Bu xo‘blug‘ fursatlari o‘tgach, u oyog‘ini tortgan kishinikiga ko‘proq kela boshlagan. Ammo uning har kelishi uni qarshi oluvchiga jabr orttirishligini bu havoyi do‘st anglashdan ojiz. Chunki u ko‘p kelish zarur vaqtda “oz kelmak” odamni qiynashi, mahzunlashtirishi, buning aksi o‘laroq “oz kelur vaqtda ko‘p kelmak” ham azoblashini ko‘ngildan kechirmagan. Bunday kimsalar hayotda ko‘p uchraydi. Biroq mehr-u oqibati sust, o‘z ahvoliga qarab turlanadigan har qanday yaqin kishiga:

Ko‘p kelur vaqt-u oz kelmaking emgatti meni,
Oz kelur vaqtda ko‘p kelmak ila o‘lturma, –

deyish kerak.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Ҳаққул И. Касби камол ўзни топишдир. – Т., 2021.*

I.H.

“XO‘BKIM, YO‘QTUR SHAMOYIL BIRLA SHIRIN SO‘Z ANGA...” – N.ning “B.V.” devoniga kiritilgan qit’asi:

Xo‘bkim, yo‘qtur shamoyil birla shirin so‘z anga,
Saydi bo‘lmas el, nechakim bo‘lsa zebo suvrati.
Xil’atin zarboft debodin gar etsun bil yaqin,
Kim namudor ichradur zarboft debo suvrati.

Ahmad Donish farzandlariga nasihat qilib: “Suratlaringni emas, siyratlaringni tuzatinglar...” degan ekan. Insonda tashqi go‘zallik ham bo‘lishi kerak. Lekin odamdagi asosiy go‘zallik – ichki, ma’naviy-ruhiy go‘zallik. Axloqi buzuq, farosatsiz kishining shakl-shamoyili har qancha yaxshi yoki ko‘rkam bo‘lmasin, u el e’tiborini o‘ziga torta olmaydi. N.ning bu qit’asi shu haqda. She’rda o‘quvchiga tanishtirilayotgan kimsa, ko‘rinishidan chiroyli va yoqimli. Ammo shunga yarashiqlik “shirinso‘z” yo‘q unda. Shu bois odamlar ko‘ngliga yaqin emas: “Saydi bo‘lmas el, nechakim bo‘lsa zebo suvrati”. Bobomiz bunday zebolikning mohiyatini jonsiz suvratga teng qo‘yadilar. Zotan, quruq jasadga nafis naqshli ipak matolardan kiyim kiydirilgani b-n, “zarboft debo suvrati”dan boshqa hech nima ko‘zga tashlanmaydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик, 3-жилд. – Т., 2011; Ҳаққул И. Касби камол ўзни топишдир. – Т., 2021.*

I.H.

XO‘QANDIY ASHUR MUHAMMAD – XIX asr birinchi yarmida Qo‘qonda yashagan. Qo‘qon xattotlik maktabi vakili. U N. asarlaridan bir necha nusxalar ko‘chirgan. 1. Arba’in. Terma devon. Toshkent. O‘zR FAShI. inv. № 3622-11, 111 437-varaq. 1250/1834-y.; 2. Terma devon. O‘sha fond. Inv. № 8241. 506-varaq. 1252/1836–37-y. Har ikkala qo‘lyozma chiroyli nasta’liq xati b-n Qo‘qonda kitobat qilingan.

Ad.: *Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. – Т., 1991; Собрание восточных рукописей академии наук Узбекистан. VII. – Т., 1964.*

Muh.A.

XO‘QANDIY MULLO SARIMSOQ – Buxoro (XIX asr) xattotlik maktabi vakili. Jizzaxda tug‘ilgan, Buxoro madrasasida ta’lim olgan. U madrasani tugatib, xat mashqi b-n shug‘ullanadi. X.M.S. Pir Anvor maqbarasida 13 marta chilla o‘tirganida ham faqat xat mashq qilardi, husni xati shu darajaga yetadiki, unga “Miraliyi soniy” yoki “Mir Imodi soniy” deb murojaat qilishgan. Amir Haydar saroyida kotib bo‘lgan, undan so‘ngra Amir Umarxon taklifi (Umarxon Buxoro xattotlaridan mohirlarini o‘z saroyiga taklif etib turgan. M-n, Mirzo Yusuf Samarqandiylarga o‘xshash) b-n Qo‘qonga borib, Umarxon saroyida xizmat qigan. Uning asosiy faoliyati Qo‘qondalik vaqtida amalga oshgan. Amir Umarxon va vazirlar unga har bir qit’a u-n 14 buxoriy qizil oltin berardilar va natijada, u ko‘p mol egasiga aylangan. X.M.S. Amir Umarxondan ruxsat olib, tug‘ilgan vatani Jizzaxga yo‘lga chiqqanida dushmanlari tomonidan qatl etilgan. U “H.A.” dostoni, “Terma devon” va “T.M.A.”ni bir muqovada jamlab, yirik nasta’liq xatida kitobat qilgan (O‘zR FAShI. Inv. № 1711-II, III, IV varaq. Qo‘qon shahrida kitobat bo‘lgan. Yirik chiroyli nasta’liq xat, Qo‘qon qog‘ozi).

Ad.: *Садр Зиё, Тазкират ул-хаттотин, ШҚМ, қўлёзма инв. 1304; Ҳакимов М. Алишер*

Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. – Т., 1991; Собрание восточных рукописей академии наук Узбекистан. VII. – Т., 1964.

Muh.A.

XO‘QANDIY NOSIRXON XOJA – XX asr boshlarida Qo‘qonda yashagan. Qo‘qon xattotlik maktabi vakili. N.ning “Xam.M.” asarini Qo‘qon shahrida 1338/1919–20-y.da chiroyli nasta’liq xati b-n ko‘chirgan (O‘zR FAShI. Inv. № 693 70 varaq).

Ad.: *Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар, Т., 1991; Собрание восточных рукописей академии наук Узбекистан. VII. – Т., 1964.*

Muh.A.

Y

YETTI VODIY – N.ning “L.T.”dostonida ta’riflangan yettita vodiy. Nuh surasidagi: “Holbuki, U zot sizlarni bosqichma-bosqich yaratdiku (Nuh: 71/14)!” oyatiga asoslanib, mutasavviflar Alloh insonni yetti darajada yaratgan, degan fikrni ilgari surishadi. Shu tarzda tasavvufda ***atvori sab’*** – yetti maqom: *nafs, qalb, ruh, sir, sirrus-sir, xafi, axfo* tushunchalari paydo bo‘lgan. Bu yo‘lda Y.V., yetti to‘siq, yetti qasr, yetti bosqich, yetti qadam yoxud yetti sir bor. Dostondagi Y.V. ham ana shunga bir ishoradir. Qalb xastaligiga davo izlab qilingan safar juda qattiq va uzoq bo‘lishiga qaramay, komil murshid tajribasi bilan yetti vodiy: ***talab, ishq, ma’rifat, istig‘no, tavhid, hayrat*** va ***fano***ga ajratilib, sayri sulukda izchillik va yengillik hosil qilingan.

Tariqatda Rasulullоh (s.a.v.) vorisi o‘laroq yo‘l bosiladi. Aslida o‘zlikni anglash yetti, Ibn Sinoning “Risolat ut-tayr” kabi asarlarida esa sakkiz manzil deya belgilanishi ham Muhammad (s.a.v.)ning me’rojdagi sayriga asoslanadi. Me’roj – payg‘ambarimiz (s.a.v.) ning Alloh taolo huzuriga ko‘tarilishi. Tariqat tarbiyasida ham mo‘minning me’roji nazarda tutiladi. Bu yo‘lchilikda murshidlar Haq yo‘lchilarini payg‘ambar orqali Allohga bog‘lovchi bir robitadir. Shu bois “L.T.”da bu vazifa yo‘lboshchi Hudhud zimmasiga yuklatiladi. N. doston syujetida Y.V. ta’rifini keltirishdan oldin bir qush tilidan “Qachon bu qatig‘ yo‘lni qat’ etamiz-u, qachon manzilga yetamiz” kabi savolni beradi. Rahnamo Hudhud bu savolga shunday javob qaytaradi:

Ollimizda yetti vodiydur azim,
Har birida behadu andoza biym.
Lek har vodiyda manzil behisob,
Kim hisobidin qilur tab’ ijtinob.

Yetti vodiy asl-u manzillar fur-u’
Ayloli ul asl sharhig‘a shur-u’.

Vodiyi avval – Talab vodiysidur,
Boshlag‘on ul yon sharaf hodiysidur.

Ma’lum bo‘lmoqdaki, Y.V. tamkinga erishib, solikning ma’lum muddat dam olib ko‘chadigan bekatidir. Solikning bu yo‘lga kirishini, Alloh azza va jallaning ne’mati sharifi sifatida qabul qilishgan so‘fiylar Anfol surasining 17 oyatini xotirlashadi: “Bas, (ey musulmonlar), ularni sizlar o‘ldirmadingiz, balki Alloh o‘ldirdi. (Ey Muhammad, ularning yuziga qo‘lingizdagi bir siqim tuproqni) otgan paytingizda, siz otmadingiz, balki Alloh otdi, va (bu g‘alabani Alloh) O‘z tomonidan mo‘minlarga chiroyli in’om bo‘lsin, deb qildi. Albatta, Alloh eshitguvchi, bilguvchidir”. Bani bashar – Odam (a.s.) avlodlari. Nafs tarbiyasida merosiy tuyg‘ularga tayaniladi. Odam (a.s.)ning Alloh taologa ishqi va vatan sog‘inchi, umuman, hijron-u huzunidan Tavba tazarru dunyoga keldi. Bu Odam (a.s.)ning nafsiga qo‘ygan ilk talablaridan edi. Komil murshidlar ham ilk vodiyni talab deb nomlanadilar. N. “Talab vodiysining sifati” sarlavhasi ostida ushbu vodiyda sayr aylagan tolibning holini bayon qiladi:

“Chun Talab vodiysig‘a qo‘ysang qadam,
Ollingg‘a har dam kelur yuz ming alam.

Istabon topmay duri noyobni,
Mundadur tark aylamak asbobni.

Mol-u mulk-u har nedur solikka band,
To‘rt takbiri fano urmoq baland.

Har nekim g‘ayri talabdur tashlamoq,
O‘zni maqsad manzilig‘a boshlamoq.

Talab vodiysi tavsifidan so‘ng talab mohiyatini amaliy jihatdan yorituvchi hikoyat keltiriladi. Yusuf surat shahzoda ishqida zindonga tashlangan, uning sakboni bo‘lgan ikki talabgorning holati bayon qilinadi:

Dardmande ayladi bir kun savol,
Kim: – “Nedur sizga bu mehnat ichra hol?”

Bu dedi: “Mehnat degan qaysi bo‘lur,
Kom-u rohatdur mashaqqat ne bo‘lur,

Menki ishqi ko‘nglum ichra to‘lg‘ali,
Rozi erdim ko‘yida it bo‘lg‘ali...”

Ul dedikim: – “Ishq etib ko‘nglumga zo‘r,
Rozi erdimkim maqomim bo‘lsa go‘r.

Garchi holo band aromen ustuvor,
Vaslidin ko‘nglum erur ummidvor”.

Solik doimiy imtihonda bo‘ladi. Turli mashaqqatlar ila sinov maydoniga qayta-qayta tashlanaveradi. Faqat bu yo‘lda talabdan voz kechmaslik, umidni uzmaslik, sidq-u sadoqat muhimdir. Shu bois bu ikki sodiq talabgor ham shahzodaning xos mahramiga aylanadi. Vodiylar sifati va hikoyatlar bir-birini to‘ldiradi. Asar so‘nggida har bir vodiy adosida munojotlarning kelishi bu maqomlar haqidagi bilimlarni yana-da mukammallashtiradi. N. asarlarida komillikning yo‘llarini: tariqi abror, tariqi ahyor, tariqi shuttor sifatida turlicha ko‘rsatadi. “L.T.” shuttorlar yo‘lidir. Shuning u-n dostondagi manzil-u makonlar tavsifini lisoni tayr orqali berish sirrini anglash kerak. N. ham:

Jannat-u kavsar-u gar to‘bi-yu hur,
Istamak sensiz talabdindur qusur.

Jon-u ko‘nglumni o‘zungga tolib et,
Dard ila ishqingg‘a shavqum g‘olib et.

Ham talab zavqini vosil qil manga,
Ham tilab topmog‘ni hosil qil manga.

Mosivalloh xotirimdin salb qil,
Onda zikringni huzuri qalb qil, -

deydi.

Irfoniy adabiyotda bosib o‘tilishi kerak bo‘lgan ikkinchi vodiy Ishqdir. Barcha mutasavvif shoirlar kabi N. ham ishqni o‘t – otashga tamsil etadi. Ishqda parvonalik har nimadan ustun qo‘yiladi. Oshiqlik – parvonadek ko‘ymoq, bulbuldek izhori dil aylamoq. Bu ishqning olovi bo‘lganligi uchungina yonish oshiqda farah va huzur baxsh etadi:

Ishq barqi xonumonni kuydurur,
Xonumon yo‘qkim, jahonni kuydurur.

Tarki jon oshiqqa varzish onglag‘il,
Yor uchun o‘lmak kamin ish onglag‘il.

Asma’iy va ishqda jonbaxsh etgan oshiq haqidagi rivoyat keltiriladi. Ular orasida ishq mohiyati haqida yozishmalar ishq ta’rif-tavsifinigina emas, oshiqning holini ham aniq bo‘yoqlarda tasvirlaydi. Ilmda talabning qalb maqomi b-n, ishqning ruh maqomi hollari b-n hamohangligi ma’lum. Bu yo‘lchilikdagi parvozda qushning bir qanoti ishqdir. Ammo Shayx Najmiddin Kubro: “Ma’rifat va muhabbat qanotlari hech qachon teng kelmagay. Ma’rifat qanoti doimo muhabbat qanotidan balanddir”, – deydi.

Ma’naviy yo‘lchiligida uchinchi vodiy ma’rifatdir. Ma’rifat Allohni ism va fe’llari ila tanishdir. Allohni tanigan kimsa qalbi poklanadi va unga ilhom beriladi. So‘fiylar bu holga “lavoyih”, “shohid”, “fath”, “ishorat” kabi nomlar berish-

gan. Ma’rifat qalbga, sevgi ruhga, tajalli sirga tegishli. Ma’rifatning kashfi ko‘ngilda bo‘ladi. Orif “Fotiha” surasidagi yetti shart: hamd, jahd, xavf, rajo, tavakkul, ixlos, istiqomat sohibiga aylanadi. Ruhiy tarbiyada har bir tolibning fe’l-atvori, ma’rifat darajasi inobatga olinadi. Bu yo‘lda pashshayu fil, Fir’avn-u Muso, Dajjol-u Iso bor. Kimdir Lotni panoh etsa, kimdir “La ilaha illalloh” – deydi. Ular har biri o‘zicha haq. Insonning zalolati va hidoyati, taraqqiy-u tanazzuli ma’rifatidadir. Ushbu haqiqatni oldinroq manzilni qat’ etgan yo‘l qarovuligina aniq ko‘rsata oladi:

Chun suluk ichra ko‘p erdi ixtilof,
Ko‘pragi durd erdi, lekin ozi sof.
Kim ravishda sofi erdi mashrabi,
Bor edi ul tobe’i shar’i nabi,–

deya muallif ma’rifat vodiysining ta’rifini yakunlaydi. Demak, to‘g‘ri yo‘l dini islom, shariati Muhammadiyadir. Zikr ahli go‘zal kalima Tavhid – La ilaha illlalloh, uning mukammalligi esa Muhammadur rasululloh – Muhammad uning rasuli iqrori b-n deyishadi. Mana shu yo‘l turli-tumanligi kabi haqiqatlar ma’rifat vodiysida anglashiladi. Bunga misol tariqasida “Ko‘rlar va fil” voqeasi hikoya qilinadi: Naql qilishlaricha, bir guruh ko‘rlar musofirlik yoxud asirlik tufayli Hindistonga borib qolibdi. Bir zamonlar o‘tgach, taqdir taqazosi b-n ular o‘z yurtlariga qaytib kelishibdi. Bir kishi ulardan so‘rabdi: “Hindistonda fillarni ko‘rdinglarmi?” Ular: “Ha”, – deya javob berishibdi. “Ko‘rgan bo‘lsangiz dalil keltiringchi”, – debdi o‘sha kishi. Ammo ular filni ko‘rmagan, hatto yaxshi so‘rab surishtirmagan ham edi. Har biri filning bir a’zosini paypaslab, u haqida o‘zicha tasavvur, bilim hosil qilgan edi, xolos. Shu sababli fil qo‘llarini ushlagan basir fil sutunga o‘xsharkan desa, qornini paypaslagan “yo‘q, u besutun” deydi. Xartumini ushlagan filni ajdahoga o‘xshatsa, tishlarini ushlagan biri “yo‘q fil ikkita suyak” ekan, deya ta’rif beradi. Quyrug‘idan xabar topgan kishi esa filni osilib turgan ilonga qiyos etadi. Filning boshini paypaslash nasib etgan kishi uni bir qoyaning tumshug‘i deya sharhlaydi. Nihoyat, filning quloqlarini paypaslagan kishi uni qimirlab turgan ikki yelpig‘ich deya ta’riflaydi. Ular ko‘rlik yuzasidan shu tariqa turli so‘zlar aytdilar. Garchi ularning barcha so‘zlari rost bo‘lsa, ham, ularning hammasi nuqsonli edi. Shu b-n birga bu ta’riflarda tartib ham yo‘q. Shuning u-n ham filbonlikda yetuk donishmand ustod, o‘zi hind bo‘lgan kishi fil haqida naql qilganlarni malomat qilmasdan shunday deydi: “Har bir odam fil haqida bilganlaricha xabar berishdi. Ular bir-birlariga zid fikrlarni aytgan bo‘lsalar ham, kechirarlidir. Zero, ularning har biri bilganicha so‘zladi, biroq birortasi filni ko‘rmagan edi. Lekin ular aytgan sifatlarning bari jamlansa, bir ma’rifat hosil bo‘lib, ulardan fil haqida muayyan tasavvur dunyoga keladi. Hikoyatda e’tibor berish zarur bo‘lgan jihatlar: ko‘rlar, fil, filbon donishmand kabi laduniy timsollar va joyning Hindiston deya tanlanishi. Ko‘plab talqinlarda ta’kidlanganidek, hikoyatda Hindiston Haq dargohini tamsil etgan. U yerga yo‘l olgan ko‘rlar Haq irfoniga talabgor yo‘lchilardir. Filbon esa komil murshid, fil haqidagi ma’rifatdan xabardor orifibilloh. Shu bois u ko‘rlarning holini anglaydi va ularni ayblamasdan har birining so‘zini rost deydi. Zero, nafs tarbiyasida qanchalar ma’rifatga erishib, solik yuksak martabalarga ko‘tarilsa ham, Alloh azza va jallaning biror ism, fe’l va sifatlari tajallisini anglab yetadi, xolos.

To‘rtinchi vodiy Istig‘no deb ataladi. Istig‘no g‘ani asosidan olingan bo‘lib boy bo‘lmoqdir. Ammo bu badavlatlik Allohdan boshqasiga muhtoj bo‘lmaslik. “Zero, Alloh barcha odamlardan behojatdir (Ankabut: 28/6)” oyatga asosan, Al-G‘aniy Allohdir. Barcha mulklar Yaratuvchisi va sohibigagina muhtojliklik martabasiga erishish Istig‘nodir. Uning 3 turi bor: barcha sabablarni qalbidan olib tashlagan solikning ko‘ngil g‘inosi, faqat Parvardigorning hukmlariga rozi bo‘lishni o‘ylaydigan nafs g‘inosi. Bunda qalb barcha riyokorlik, yolg‘ondan poklanadi. Va oxirgisi esa so‘fiyning Haq taolo bilangina zanginlik topishidir. Buni ham uch darajaga ajratishgan. Birinchi-

si – Haq taolo o‘zini zikr etganini mushohada qilish. Ya’ni, Alloh azza va jallaning azalda o‘zini bilib yaratganini anglagan solik abadiyatga qadar ham Allohning unutmasligini idrok etadi. Ikkinchisi – Allohning har narsaning avvali ekanini anglash. Solik bunda taqdirini yozuvchi, barcha rizqlarni ato etuvchi, butun ehtiyojlarni qondiruvchi Alloh ekanini anglaydi. Uchinchisi esa so‘fiyning Allohning ismlarida fano bo‘lgach, uning zotida fanolikka erishishidir. Istig‘no vodiysidan o‘tish juda mushkul. Ammo N. nazdida, solik bu vodiyni rizo maqomi b-n bosib o‘tadi. Shoir fikr-mulohazalarining dalili u-n Hazrati Ibrohimning Namrud tomonidan olovga otilishi rivoyatini keltiradi. Zotan, shu holida ham “Hasbunallohu va ni’mal vakilu” (U (Alloh taolo) naqadar yaxshi vakildir), deya omon qolgan Ibrohim (a.s.)ning rutbasi istig‘no vodiysining sirsinoatini to‘la ochib beradi:

Oytqilkim ehtiyojing negadur?
Lutf-u ehsondin mijozing negadur?

Neki sen dersen muhayyo ayloli,
Ulcha koming oshkoro ayloli?

Dedi ulkim: – “O‘t manga ro‘zi qilur,
Ehtiyojim ne ekonni ul bilur.

Yo‘q sanga xud ehtiyojim bu nafas,
Toki zohir aylagaymen multamas”.

Istig‘no vodiysi insoniy olamda sidrat ul muntahoni ifoda etadi. Allohning fe’l va sifatlari tavhidiga erishgan solik bu maqom ta’sirida “Anal Haq” shathini zikr eta boshlashi mumkin.

N. keyingi vodiy ta’rifini shunday boshlaydi:

Vodiyi Tavhid ondin so‘ngra bil,
Fard o‘lub tajrid ondin so‘ngra bil.

Chun bu vodiy sori sayring qo‘ydi gom.
Fard-u yaktolig‘ sanga bo‘ldi maqom.

Borchag‘a kom-u havo tajrid o‘lur,
Borchag‘a lahn-u navo tafrid o‘lur.

Tavhid – yakka, yagonalik, birlikdir. Darhaqiqat, “Alloh, farishtalar va ilm ahllari – adolat bilan hukm qilguvchi yolg‘iz Allohdan o‘zga hech qanday Tangri yo‘q, faqat Uning o‘zi borligiga guvohlik berdilar. Hech qanday Tangri yo‘q, faqat Uning o‘zi bor. U qudratli, hikmat egasidir (Imron: 33/18) oyatining sirri ko‘ngillarda oshkor bo‘ladi. Alaloqibat, solik bu vodiyda senlik va menlikdan ozod bo‘ladi. Ikkilik yo‘qolib faqat birlik qoladi:

Bir bo‘l-u, bir ko‘r-u, bir de, bir tila,
Mayl qilma munda ikkilik bila.

Ikkilik bu yo‘lda ahvolliqdurur,
Sirri vahdatdin mu’attalliqdurur.

Bu vodiydan so‘ng “Anal-Haq” zikri ila sir oshkor etgan Mansur Halloj haqida hikoyat keltirilishi bejiz emas. Maqomi tavhidda inson o‘z holiga muhayyir. Nafs tarbiyasida jiddu jahd aylab, O‘zligini unutgan – nafs-u havoni yenggan vohid solik hayrat maqomiga ko‘tariladi. Dostonning asosiy qahramoni, ya’ni muallif ham Robbul olamin – olamlar Murabbiyidan tavhid maqomiga erishishni istab yolvoradi:

Har kishikim qismi tavhid aylading,
Boisi tajrid-u tafrid aylading.

Kimki o‘zlukdin chiqording oni chust,
Aylading ollingda tavhiddin durust.

Menu o‘zluk shirkatin mendin itur,
Mahz tavhiding sari, yo Rab, yetur.

Menda, yo Rab, qo‘yma menlikdin nishon,
O‘zlugungda mahv qil domonkashon.

Mana shunday ma’nan qayta tug‘ilish bosqichini ko‘rsatishda dostondagi “Mahmud va

Ayoz” hikoyati alohida e’tiborga molik. Vohid b-n muhayyir (tavhid va hayrat), deyarli, farqlanmaydi. Yor bilan uchrashish tavhid, uchrashish paytidan keyingisi esa hayratdir. Alloh taologa makon va zamon nisbat etilmagani sababli solik u-n ham makon va zamon o‘rtadan ko‘tariladi. So‘fiy ham ibn-ul vaqt, ham ab-ul vaqtdir.

Fano so‘nggi vodiydir. Ammo ko‘p irfon egalari kabi N. ham bu vodiyni Faqr-u fano deb ataydi:

Borchadin so‘ng vodiyi Faqr-u fano,
O‘tmas ondin sayr ila solik yano.

Qat’ o‘lur munda suluk ahlig‘a gom,
Ish bo‘lur o‘zga qilig‘ birla tamom.

Lek manzildin xabar bermas birav,
Kim bu yo‘ldin yonmadi bir rohrav.

Bu yetti vodiy dog‘i ijmol erur,
Lek tafsilida ko‘p ishkol erur.

Kubro hazratlari fano maqomini shunday anglatadi: “Sayyor avvallari sababni, so‘ngra esa musabbibni mushohada etar. Vaqt o‘tishi bilan sabab-u musabbibni ayni onda mushohada etgudek bir tarzda ular bilan aloqa bog‘lab, ulfatchilik qilar. So‘ngra esa foniydan kechib boqiyni tanlar va shundan keyin faqat musabbibni ko‘ra boshlar. Bir guruh shayxlar (q.s.) ning “Hamma narsadan so‘ng Allohni ko‘rdim, keyin esa Uni hamma narsa ila birga ko‘rdim. Undan ham keyin hamma narsadan avval Uni ko‘rdim”, degan so‘zlarining ma’nosi ham xuddi ana shudir. Bu Alloh tavhidida foniy va zikrida istig‘roq holining sharofatidan erur”. Atvori sab’aning alohida ta’rifiga bag‘ishlangan asarlarda ko‘rinadiki, tavhid vodiysida bir bor foniylikka erishgan solik hayratdan o‘ziga keladi hamda faqr-u fano vodiysida tamoman o‘zlikdan kechib baqobillohga yuz tutadi. Yaratiqlarning bari mahv o‘lib, yolg‘iz Yaratuvchi qoladi.

Kim qilib Simurg‘ o‘ttuz qush havas,
O‘zlarin ko‘rdilar ul si murg‘u bas...

Munda zohir bo‘ldi sirri “man araf”,
Kim ko‘rubtur gavhar o‘lmog‘lig‘ sadaf.

Bordur inson zotida oncha sharaf,
Kim yamon axloqin etsa bartaraf.

Y.V. so‘nggida solik “Men go‘zal xulq ustida yaratildim” degan Rasulullohga vorislikka erishadi. Ammo bu vodiylarda riyozat chekish, mashaqqat ila bosib o‘tish erlar ishidir:

Barchasi fahm ettikim bu mushkil ish,
Ul jamoat loyiqi ermas emish.

O‘zlaridin barcha navmid o‘ldilar,
Mubtaloi huzni jovid o‘ldilar.

O‘yla topti bo‘yla muhlik so‘z vujud,
Kim nihodidin borining chiqti dud.

Balki chun bu ishga voqif bo‘ldilar,
Vahmdin ul dam ko‘pi xud o‘ldilar.

Vodiylar ta’rifini eshitgan ba’zi qushlar qo‘rquvdan jon taslim etadilar. Zero, bu qatig‘ va uzun yo‘ldir. N. bu zahmatli yo‘lchilikni to‘laqonli ko‘rsatib bera olgan. Y.V. sifati vasfidan keyin – 10 (6 vodiy sifati ta’rifidan keyin 1 tadan, 7-vodiy sifati ta’rifidan keyin 4 ta) hikoyat (150, 152, 154, 156, 158, 160, 162, 163, 164, 165-boblar) keltiriladi. E.V. adosi munojotidan keyin ham 7 tamsil (175, 177, 179, 181, 183, 185, 187-boblar) mavjud.

Xullas, Alloh bir mo‘min qulini valodat ahliga qo‘shmoq istasa, u qulining ko‘ngliga Irodat sifati ila tajalli etadi. U qul esa talabi Haq dardiga tushadi. Va darajama-daraja unsiyat hosil qiladi. Talab vodiysida – Tolib, Ishq vodiysida – Oshiq, Ma’rifat vodiysida – Orif, Istig‘no vodiysida – G‘aniy, Tavhid vodiysida – Vohid, Hayrat vodiysida – muhayyir, nihoyat, Faqr-u fano vodiysida

– Foniyga aylanadi. Birinchi manzilda haqiqiy Matlub tanlanadi. Vujud bu manzilda riyozatga bel bog‘laydi. Va Ikkinchi bekatda nafs poklanib, ko‘ngil zavqqa to‘ladi. Va bu manzil solik u-n eng xush manzillardan bo‘lib, nafs shu yerda qolishni ixtiyor etadi. Ammo manzil uzoq, yo‘l qatig‘dir. Solik ilm yordamida ildamlashi lozim. Islom ma’rifati qalblarga inib, “aql” bu manzilda qoladi. To‘rtinchi manzilda go‘zal axloq sohibiga aylanib, zikrulloh b-n mashg‘ul bo‘ladi, tavakkul maqomi egasiga aylanadi. Bu ko‘ngil maqomidir. Beshinchi manzilda orif valilar bo‘ladi. Ular basirati ochiq, voqifi asrorlardir. “Jon” ushbu manzilda qoladi. Ilohiy ummonga g‘arq bo‘lish oltinchi maqomdir. Ularga lutf va qahr tafovuti yo‘q. Vujud, nafs, aql, ko‘ngil va jon tark etilgach, ularning yo‘qligi tufayli ojizlangan solik Haqning rahmati bo‘lmish inoyat, hidoyat, tavfiq, aqli kull orqali, shuningdek, ma’shuqa ishqi va jamol umidi b-n visolga erishadi. Demak, avvalo, talabda Do‘st tanlanadi, nafsi ammora nafsi marziyaga almashadi, aqli maosh aqli kullga, jon esa qudsiy ruhga aylanadi. Allohning fayz-u rahmati Haq yerini yo‘l so‘nggi – yettinchi manzilga olib boradi.

Ad: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 9-том. – Т., 2011; Нажмиддин Кубро. Тасаввуфий ҳаёт. – Т., 2004; Najmiddin-i Daye. Sufillerin seyri. – Istanbul, 2013.*

Z.R.

YETTI OTA VA TO‘RT ONA – yetti ko‘k va to‘rt unsur. Ba’zan yetti raqami o‘rnida to‘qqiz ham qo‘llanilgan. Ismoil Haqqiy Bursaviy bu haqda yozadi: “Surati insoniyya to‘qqiz ota, to‘rt ona va uch boladan iborat erur. To‘qqiz otadan murod – to‘qqiz ko‘k falagi, to‘rt onadan maqsad havo, otash, suv va tuproq, ya’ni to‘rt unsur. Uch farzanddan murod esa o‘simlik, ma’dan va hayvon, ya’ni mavolidi salosadir”.

Mahmud Shabustariy yanada soddaroq qilib, buni bunday tushuntiradi: “Inson o‘z suratida zohir aylashdan oldin ona rahmida va ota belida bir qatra suvdan iborat edi. Ota-ona shu bir qatra suvni yegan narsalaridan, ya’ni hayvonot, nabotot va jamodotdan to‘plashgan. Bu uch borliqqa to‘rt unsur ona, to‘qqiz ko‘k ota erur, ya’ni jamodot, nabotot va hayvonot to‘rt unsur va to‘qqiz qat ko‘kdan paydo bo‘lgan”. Bular bevosita insonning yaratilishiga dahldor mulohazalar. Insoni komil masalasiga kelganda, yetti ko‘k tushunchasiga tamoman yangicha yondoshilib, unga butunlay yangi ramziy-majoziy mazmun singdirilgan. Aziziddin Nasafiyning yozishicha, o‘pka, miya, buyrak, yurak, o‘t xaltasi, jigar va taloq singari ichki organlar yetti ko‘kni tamsil etadi.

Mumtoz shoirlarimiz, jumladan, N. ham samoviy olam – yetti yoki to‘qqiz ko‘k xususida so‘z yuritganda hamma payt ham jismoniy mavjudliklarni emas, balki insonga nisbat berilgan ramz va majoz orqali komil inson mohiyatini yoritishga qaratilgan fikr-mulohazalarga ham diqqatni jalb etishgan. Bunga esa mavjud olamda bor hamma narsa odamda ham bor, komil inson faqat yerdagi emas, samodagi barcha narsalarni ham o‘zida jamlagan, degan ishonch keng yo‘l ochgan. N.ning quyidagi misralarida ham “yetti ato” yetti ko‘kni anglatadi:

Jinsi bashar yo‘q ogahing, xurshid xoki dargahing,
Ko‘k mahd aro tifli rahing ***yetti ato-u to‘rt ano****.*

Ad.: *Умар Жайлон. Тасаввуфий шеър шарҳлари. – Истанбул, 2000; Маҳмуд Шабустарий. Гулшани роз. – Истанбул, 1993; Азизиддин Насафий. Инсони комил. – Т., 2021.*

I.H., S.J.

YETTI SAYYORA – Sharqda qadimdan yetti sayyora, to‘qqiz falak tushunchalari mashhur bo‘lgan. Yerga yaqinligiga qarab, Oy – birinchi, Atorud (Merkuriy) – ikkinchi, Zuhra (Venera) – uchinchi, Quyosh – to‘rtinchi, Mirrix (Mars) – beshinchi, Mushtariy (Yupiter) – oltinchi, Zuhal (Saturn) – yettinchi falakda deb tasavvur qilingan. To‘qqiz falak deganda, ushbu sayyoralarga yana ikkita qo‘shiladi: “Falaki savobit” (turg‘un

falak) – burjlar. Bu – sakkizinchi osmonda bo‘ladi. Falak ul-avlok (Falaklar falagi) – to‘qqizinchi osmon. To‘qqizinchi falak deganda osmonning eng yuqori qismi tushuniladi.

“X.”ning to‘rtinchi dostoni “S.S.” – “Yetti sayyora” deb ataladi. Bu sayyoralarning har biri bir rang b-n ham bog‘liq: Kayvon – qora, Quyosh – sariq, Oy – yashil, Mirrix – qizil, Atorud – nilufar (moviy), Mushtariy – sandal, Zuhra – oq. N. yetti haftani shu yetti sayyora nomi b-n bog‘lab, “S.S.” dostonida Bahrom har kuni bir qasrda bir iqlimdan kelgan musofirning hikoyasini eshitadi: shanba kuni – qora qasrda, yakshanba kuni – sariq qasrda, dushanba kuni – yashil qasrda, seshanba – qizil qasrda, chorshanba – nilufariy qasrda, payshanba kuni – sandal tusli qasrda, juma kuni – oq qasrda.

N. Bahromni – Mirrix, Diloromni – Zuhraga o‘xshatadi. Ma’lumki, Mirrix – qahramonlik va jang-u muhoriba timsoli bo‘lsa, Zuhra – go‘zallik va san’at ramzi.

Ad.: *Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Эшонқулов Ҳ. Самовот – ишқ мазҳари. – Т., 2008.*

H.E.

YETTI TAMUG‘ – yetti do‘zax, do‘zaxning yetti qavati, nomlari: Nori jahannam, Lazo, Xutamo, Soir, Soqar, Jahim, Xaviya. Musulmonlar orasida Y.T. va undagi jazo-yu azoblarga doir fikrlar ancha keng tarqalgan. Chunki islomga ko‘ra, do‘zax ham xuddi ko‘kka o‘xshab yetti qavatdan iborat bo‘lib, birinchisida ikkiyuzlamachi, munofiq kishilar; ikkinchisida Misr fir’avnlari va ayonlari; uchinchisida dahriylar, to‘rtinchisida afsungarlar, beshinchisida kofirlar, oltinchisida yulduzparastlar jazolanar ekan. Nihoyat, so‘nggi qavatda adashganlar azobga mahkum etilib, olov yongan qavatlardan farqli ravishda, unda qattiq sovuq paydo bo‘larmish. Lekin N. do‘zax va jahannam ishonchida diniy fikr-mulohazalar b-n kifoyalanib qolmasdan, jahannam va uning azob-u qiynoqlarini insonning o‘zidan, yanada aniqrog‘i, uning nafsidan axtargan:

Xilofi shar’ agar yetti ko‘kka chiqqungdur,
*Yaqinki, **yetti tamug‘**din batardur ul yettov.*

Shuning u-n ham shoir nafsoniy hirslarni qattiq qoralab, tanqid ostiga olgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011.*

I.H., S.J.

YO‘LCHIYEVA Munojotxon Abduvaliyevna (1960, Andijon**)** – xonanda. O‘zbekiston xalq artisti (1994). “El-yurt hurmati” ordeni b-n mukofotlangan (1998). “O‘zbekiston Qahramoni” (2021) “Sharq taronalari” 1-xalqaro musiqa festikalida 1-mukofot sovrindori (1997). Toshkent konservatoriyasini tugatgan (1985). Hofiza N.ning “Saraxbori Dugoh” (“Xolu xating xayolidin ey sarvi guluzor...”), “Munojot” (“Kelmadi”), “Ushshoq” (“Qaro ko‘zim”), “Nimcho‘poniy” (“Zulfiga mayl ey nasimi anbar afshon aylama...”), “Mubtalo bo‘ldim sanga, Bayot II” (“O‘lturgusi”) kabi g‘azallarining targ‘ibotchisi sifatida mamlakatimiz va dunyo sahnasida mahorat b-n ijro etgan va milliy qo‘shiqchiligimiz rivojiga katta hissa qo‘shgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011.*

B.R.

YADA TOSHI – sehrli tosh, jodu (f.: hajar ul-xutur – xotirga keltiradigan tosh). Qadimdan turkiy xalqlar orasida maxsus tosh yordamida afsun-duo o‘qish yo‘li b-n qor, yomg‘ir, shamol, bo‘ron chaqirish yoki ularni to‘xtatish udumi bo‘lgan va u XX asrgacha amal qilib kelgan. Sigir, ot yoki to‘ng‘iz oshqozonidan chiqqan tosh ustida o‘qilgan duo yordamida yomg‘ir chaqirilgan. Tarixiy manbalarda dushmanga qarshi ku-

rashda ham Y.T.dan foydalanilganligi haqidagi ma'lumotlar uchraydi. M-n, tarixga Loy jangi nomi b-n kirgan Amir Temur va Amir Husaynning Jeta (Mo'g'uliston) xoni Ilyosxo'jaga qarshi Toshkent b-n Chinoz oralig'ida – Chirchiq daryosi bo'yida bo'lib o'tgan jangida, Ali Yazdiyning yozishicha, halol jangda g'olib kelolmasligini payqagan Ilyosxo'ja hiyla ishlatadi: yadachi Y.T. yordamida kuchli jala yog'diradi va u jangni o'z foydasiga hal qiladi. Turkiy xalqlar orasida qurg'oqchilik munosabati b-n yomg'ir chaqirish marosimida aytiladigan sust xotin mavsum-marosim qo'shig'i ham mashhur.

Y.T. haqida qadimgi xitoy, arab manbalarida ham ma'lumotlar saqlangan. Turkiy-runik manbalarda, ayniqsa, Beruniyning "Mineralogiya", Mahmud Koshg'ariy "Devoni lug'otit turk", Mirzo Ulug'bek "To'rt ulus tarixi", Rashididdining "Majmuat ut-tavorix", N., Zahiriddin Boburning "Boburnoma", Muhammadrizo Ogahiy asrlaridagi ma'lumotlar ham diqqatga sazovordir. Turkiy-runik manbalarda – 𐰽𐰏𐰇𐰃 [y^{a}tda], Mahmud Koshg'ariyda – يٮت [y^{a}t], يات [yat] shakllarida uchraydi. N.ning asarlarida Y.T. "yada", "jada", "yado" tarzida qo'llanilgan. N. asarlarida Y.T. haqida ma'lumot borligini birinchi bo'lib A. Inon "Tarixda va bugun shomonizm" asarining "Yada (jada, yat) toshi va yomg'ir tilsimlari" bo'limida "Jada toshi afsonasi Chig'atoy devon adabiyotidan ham o'rin egallagan. N. "F.K." devonida: "*Yada toshig'a qon yetgach yog'in yoqqandek, ey soqiy, / Yog'ar yomg'urdek ashkim chun bo'lur la'ling sharobolud* bayti bordir" degan fikri b-n xabar beradi. E'tiborga molik tomoni shundaki, bu g'azal A. Inon aytganidek, "F.K." devonida emas, balki "B.B." devonining 113 va "G'.S." devonining 117-g'azali sifatida takrorlanib qayd etilgan. Aslida g'azal to'qqiz baytdan iborat bo'lib, yuqoridagi baytlar g'azalning uchinchi bayti hisoblanadi. G'azalni sharhlaganimizda quyidagi ma'no kelib chiqadi. Birinchi, *"Yada toshig'a qon yetgach yog'in yoqqandek, ey soqiy"* baytidagi e'tibor bersak. Y.T.dan foydalanish u-n ayrim amallar qilinishi kerak bo'lgan. Afsonalarda, Y.T.ga ma'lum bir hayvonning qonini tekkizish hamda suvga solish yoki quyoshga qaratilish orqali darhol yomg'ir chaqirilganligi aytilgan. Unga ko'ra, Y.T.ga qon tekkizilishi va yadachining duolari ta'sirida yomg'ir, do'l, jala, shamol, bo'ron paydo bo'lgan. Bu afsonalardan xabari bo'lgan N. ikkinchi baytida: *"Yog'ar yomg'urdek ashkim chun bo'lur la'ling sharobolud"*, ya'ni xuddi Y.T.ga qon tekkanda qizargani kabi, seni labinga sharob tegib qizardi, ya'ni "*sharobolud*" – sharob yuqi bo'ldi deb, ko'z yoshim Y.T. yog'dirgan yog'ar yomg'irdek deya, ta'kidlamoqda. Yuqorida sharhlangan bayt juda ko'p mahalliy xorijiy ilmiy maqolalarda misol sifatida qo'llanilgan. Shu ma'noda, N. asarlarida hali olimlar e'tibor bermagan baytlarga e'tibor qaratsak. "F.K." devonining fardlar bo'limi 31-fardiga e'tiborimizni qaratamiz: *Qotiq ko'nglungdin oqti xalq yoshi, / Kim, yomg'ur boisidur* ***joda toshi***. Ushbu fard takror tarzida "B.B." devonida ham 31-fard sifatida qayd etilganini ham aytib o'tishimiz kerak. Fardning ma'nosiga e'tibor bersak, shohning ko'ngli qattiqligidan xuddi Y.T. yog'dirgan qalin yomg'ir kabi xalq yoshi oqti deyilmoqda. Ortiqacha izohlarsiz bu fard ma'nosini bemalol tushunishimiz mumkin. Bu fardda ham Y.T.ning yomg'ir yog'dirishi ta'kidlab ko'rsatilmoqda. Yana bir yangi misollardan biri "B.V." devonining 595-g'azalida uchraydi: *Sellarkim to'kar ko'zum yoshi, / Soyining toshidur* ***yado toshi***. Ushbu g'azal aslida 7 baytdan iborat bo'lib, yuqoridagi parcha g'azalning birinchi bayti ya'ni, matla'si hisoblanadi. Yuqorida ham aytib o'tganimizdek, yadachilar amalini bajarish uchun. Y.T.ga qon surtishgan va uni suvga solishgan yoki quyoshga qaratishgan. Baytda ham soyning toshi Y.T. bo'lib suvda turibdi. Buning natijasida ko'zimning yoshi sel kelganda soylar to'lib-toshib oqqani kabi to'kiladi, degan ma'no kelib chiqmoqda.

Y.T. timsoli davrlar o'tishi b-n og'zaki adabiyotdan, yozma manbalarga ko'chdi va asrlar davomida mumtoz adabiyot vakillari u-n, xususan, N. asarlari u-n ham poetik xom ash-

yo vazifasini o‘tab berdi. Turkiy xalqlardagi Y.T. haqidagi afsonalardan va yadachilarning marosim amallaridan N.ning to‘liq xabardor bo‘lganligi yuqoridagi baytlar sharhlanganda oydinlashdi. N. asarlaridagi Y.T. haqidagi ma’lumotlar F.Ko‘pruluzoda, A.Inon, S.Mutallibov, M.Jo‘rayev kabi olimlar hamda yosh tadqiqotchilar A.Ureten, N.Jo‘raqo‘ziyevlarning tadqiqotlarida qayd etilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик, 3-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011; Жўраев М., Нарзиқулова М. Миф, фольклор ва адабиёт. – Т., 2006; Журакузиев Н.И. Древнетюркский мифический камень яда в произведениях Алишера Навои // Преподавание языка и литературы. №5/2014; Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. 3 томлик, 3-том. – Т., 1963; Навоий асарлари учун қисқача луғат. – Т., 1993; Inan A. Tarihte ve bugün şamanizm. – Ankara, 1954; Köprülızade F. Eski Türklerde dini-sihri bir anane. Darülfünün Edebiyat Fakültesi Mecmuasi, Cild IV, Sayi 1. – Istanbul, 1925; Üğreten A. Türk kültürında “Yada taşi” ve XVIII. yüz yil sonu Osmanli-Rus savaşlarinda kullanilmasi // Belleten. Aralik, 2000. – Ankara, 2001.*

Nod.J.

YADI BAYZO (ar. yad – qo‘l, bayzo – oq; yadi bayzo ko‘rsatish – mo‘jiza va karomat ko‘rsatish) – oq qo‘l, nurli qo‘l. Sharq mumtoz adabiyotidagi obrazlardan biri. Bu obraz Muso (a.s.) b-n bog‘liq bo‘lib, payg‘ambarligining isboti u-n u qator mo‘jizalar ko‘rsatgan. Shunday mo‘jizalaridan biri – qo‘lini qo‘ltig‘iga tiqib chiqarsa, u quyoshday porlab nur taratar edi. Turi Sinoda ilohiy otashda kuygani evaziga Haq taolo uning qo‘liga shunday mo‘jiza baxsh etgan. Shundan u Y.B. nomi b-n mashhur bo‘lgan. N. “T.A.H.” asarida bu haqda Muso (a.s.)ga “yadi bayzo va aso mo‘jizasi karomat bo‘ldi”, – deb yozadi. Mumtoz adabiyotda talmeh san’ati vositasida bu voqeaga ishora qiladilar. Y.B. Sharq she’riyatida mo‘jiza, karomat va xoriqulodot amallar – ya’ni odatdan tashqari ishlar, hodisa, mahorat, qudrat, yorning oppoq qo‘li kabi ma’nolarni tamsil etib keladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Қисаси Рабғузий. 1-китоб. – Т., 1990; Ғиёс ул-луғот. Ж. 2. – Душанбе, 1988; Ислом. – Т., 2004; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 3. – Душанбе, 2004.*

E.O.

YAZD CHO‘LI (Yazd sahrosi) – Eronning markaziy qismidagi shahar atrofidagi hudud. Mazkur hudud Yazd shahri nomi b-n ataladi, tarixiy-geografik atama. N.ning bolaligi b-n bog‘liq xotiralarida Y.Ch. haqida gap boradi. Eng ishonchli ma’lumotni Xondamir “Makorim ul-axloq” tarixiy asarida yozib qoldirgan. Ma’lumotga ko‘ra, N.lar oilasi Shohrux Mirzo vafotidan keyin Hirotni tashlab Iroq tomon yo‘lga tushadi. N. oilasi qo‘shilgan karvon Y.Ch.dan o‘tadi. Shu vaqtda hali bola bo‘lgan N. uxlagan holda otdan tushib qoladi. Karvon belgilangan manzilga yetib keladi, so‘ng qarasalar u yo‘q. N. ham uyqudan uyg‘onganda, holatini anglaydi, so‘ng otasi do‘stlari bilan uni izlab topadi. Yana N. “M.N.”, “N.M.”da mumtoz muarrix Ali Yazdiy haqida alohida fiqralar yozgan. Shu fiqrada Y.Ch., Yazd shahri b-n bog‘liq hududni ham esga olgan. Ma’lumki, mazkur joy N. yashagan davrda temuriylar davlat boshqaruvida bo‘lgan hudud hisoblangan.

Y.Ch. adib Mirkarim Osimning “Zulmat ichra nur” asari tarkibidan o‘rin olgan hikoyalardan biri “Yazd Cho‘li”da ham o‘zining badiiy ifodasini topgan. Mazkur asarini N.ning tarixiy siymosiga bag‘ishlangan. Yozuvchi hikoyani yozishda buyuk shoir Y.Ch.da karvondan tushib qolgani, ota-onasi va karvondagilarning tahlikaga tushishi va N.ning sog‘lom holda topishi, uning jasur qiyofasini tasvirlagan. Adib mazkur hikoyani yozishda, asosan, N.ning shogir-

di, tarixchi Xondamirning “Makorim ul-axloq” asarida yozib qoldirgan tarixiy ma’lumotlardan unumli foydalangan. Mirkarim Osim hikoyada buyuk shoirning bola obraziga o‘quvchini qiziqtirish maqsadida badiiy to‘qimaga ham keng o‘rin bergan. Umuman, yozuvchining san’atkorligi tufayli “Yazd cho‘li” hikoyasida tarixiy haqiqat-u badiiy to‘qima bir-birini to‘ldirishga xizmat qilgan. Mazkur hikoya maktab darsligidan ham o‘rin olgan, o‘quvchilarning N. haqidagi eng sevimli badiiy asari hisoblanadi.

Mirkarim Osim “Yazd Cho‘li” asarida mazkur tarixiy-geografik toponim haqida ikkita joyda to‘xtalgan. Har ikki tarixiy lavhada ham 5-6 yashar bola bo‘lgan N.ning Y.Ch.da uyqu bosib, otdan tushib qolish tarixiy voqeasi bolalarga mos tarzda talqin qilingan. Geografik, tarixiy manbalarga suyangan holda mazkur hudud joylashgan chegarani ham asarda to‘g‘ri bergan. Chunonchi: “Yo‘lovchilari Hirot vodiysidan chiqib, Yazd vohasigacha cho‘zilgan katta sahroga (cho‘l) qadam qo‘yishlari bilan safar og‘irlashdi, odam yursa oyog‘i, qush uchsa qanoti kuyadigan bu sahroda faqat kechalari yo‘l bosish mumkin edi. Yo‘lchilar har yer-har yerda bo‘lgan sho‘r quduqlardan suv chiqarib, meshlarini to‘ldirib olar edilar. Bepoyon qum sahrosi hammaning joniga tekkan edi. Karvon bir necha kundan keyin Yazd vohasidagi Taft qishlog‘iga yetib keldi, vatq yarim kechadan oqqan edi. Yo‘lchilar karvonsaroyga tushib, orom oldi... Yo‘lovchilar ba’zan yalanglikda tunab qolar, ba’zan karvonsaroylarga tushib bir-ikki kun dam olar edilar. Biroq Yazd cho‘liga qadam bosishlari bilan ahvol o‘zgardi. Karvon salqin kechalari yo‘l bosib, kunduzlari quduqlar bo‘yida orom oladigan bo‘ldi.”

Birinchidan, hikoyada Alisherlar oilasining Hirotdan Iroqqa ketish tafsiloti badiiy talqin qilingan. Ikkinchidan, ular qo‘shilgan karvon Hirotdan chiqib Y.Ch.ga kirishi, karvonning mazkur cho‘lda azob-uqubatlarni ko‘rishi, tunlari yurib, kunduzi dam olishi, shunday holatda ham yosh bolalarning o‘zlarini o‘yin b-n ovutishi aytilgan. Uchinchidan, Y.Ch. Yazd sahrosi shaklida ham berilgan. Unda Alisherning qanday qilib otdan tushib, Yazd sahrosida uxlab qolishi, tongda uyg‘onishi, otasidan “...Iroq viloyati – kunbotish tomonda, Hirot – kunchiqishda”, – degan gapni eshitgandi. Aqlli bola kun yorishib kelayotgan tomonga qarab yurib ketdi”, fikr asosida o‘zi Iroq tomonga yo‘nalishi tasvirlangan. To‘rtinchidan, uning otdan tushib cho‘lda qolishini dastlab onasi sezib qoladi. Ona yig‘laydi, ota vahimaga tushadi. Xullas, otasi uch-to‘rt kishi b-n kelgan yo‘llari tomon yurib ketadi. Qo‘rquv b-n ketayotgan ota yo‘lda N.ni uchratadi. U ham otasini ko‘rishi b-n baqirib yig‘laydi. Oltinchidan, hikoya xulosasi ijobiy yakunlanadi. Bunda adib daho shoirning bolaligi b-n bog‘liq bir lavhani o‘quvchiga taqdim etgan. Unda buyuk N.ning porloq kelajagi qaysidir ma’noda bashorat qilingandek.

Hikoya haqida gapiradigan bo‘lsak, ma’lumki, Mirkarim Osim yozgan tarixiy asarlarni uchga bo‘lib o‘rganish mumkin. 1. Tarixiy-qahramonlik mavzusidagi asarlar. 2. Tarixiy-maishiy mavzu. 3. Tarixiy-tarjimayi hol asarlari. Mazkur hikoya adibning tarixiy-tarjimayi hol asarlar mavzusiga kiradi. Yuqorida aytganimizdek, N.ning bolalikdagi tarixiy tarjimai holi b-n bog‘liq bir lavha badiiy talqin qilingan.

N.ning bolalikdan tug‘ma iste’dod, tabiatan fazilat egasi bo‘lganligi Y.Ch. tasvirida aniq tasvirlangan. Uning qobiliyatini yuzaga chiqarishda oila muhiti ota va onasi obrazlari ham berilgan. Shuningdek, hikoyada uning zakiyligi Taftda mumtoz muarrix Ali Yazdiy b-n uchrashuvi va suhbatida ham yaqqol ko‘rinadi.

Asarni to‘rt tasnif asosida o‘rganish mumkin. 1. Tog‘asi Mirsaidning N.lar xonadoniga kirib kelishi, Shohrux mirzoning vafoti haqidagi sovuq xabarni aytishi va opasi va tog‘asining Hirot shahrida yuz berishi mumkin bo‘lgan to‘polonlar xususida gapirishi. 2. Shoir Mirsaidning hirotliklar bir karvon tuzib tinch muhitga ketishi b-n bog‘liq rejani aytishi va G‘iyosiddin Bahodirga taklif kiritishi bu gap-so‘zlardan bola Alisherning voqif bo‘lishi gapirilgan. 3. G‘iyosiddin Kichkinaning Mirsaidning taklifiga ko‘nishi va

ularning karvon xayli b-n Hirotdan chiqib ketishi va Iroq tomon yo‘nalishi tasvirlangan. 4. Yo‘nalishda bola Alisherning Y.Ch.da karvondan qolib ketishi, uning ruhiy holati, onasining payqab yetishi, otasining izlab topishi va bola b-n otaning ko‘rishishi b-n bog‘liq chizgilarning berilishidir. 5. Umuman olganda, “Yazd Cho‘li” hikoyasida barcha tarixiy (Mirsaid Kobuliy, G‘iyosiddin Bahodir, Ali Yazdiy va Alisher) va to‘qima obrazlar (karvondagi xonadonlar sohiblari va Alisherning otasi b-n uni izlab orqaga qaytgan do‘stlari) bola Alisherning portretini, ruhiyatini, ongini, hayot tarzini ochib berishga qaratilgan.

Ko‘rinib turibdiki, asarda adib, asosan, tarixiy shaxslar obrazidan unumli foydalangan. N. haqida asar yozgan keyingi davr adiblari ham N. ning bolalaligi xususida lavha yozar ekan, mazkur holatga alohida to‘xtalgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. (Форс тилидан Раҳматов К. таржимаси) – Т., 2018; Миркарим Осим. Синган сетор. – Т., 2014; Мирвалиев С. Ўзбек адиблари. – Т., 2003.*

B.R.

YAZDIGURD III (Yazdijurd) – Sosoniylar sulolasidan oxirgi hukmdor. Yevropa tarixchilari uni Yezdigerd III deb ataydilar. 632-y.dan 651-y. gacha podshoh bo‘lgan. Aytish joizki, Y. hukmronligi davrida mamlakatda siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy buhron kuchayadi: turli o‘lkalar o‘zlariga mustaqillik e’lon qilib, birin-ketin mamlakat tarkibidan chiqa boshlashadi. Natijada, davlat sustlashib, ichki boshboshdoqlik, parokandalik kuchaydi va arablarning 633-y.dagi hujumiga bardosh bera olmadi. Arablarga qarshi katta qo‘shinga Rustamni lashkarboshi etib tayinlagan. Bu qo‘shin Kadisiyada arablar b-n urushib, mag‘lubiyatga uchragan, Rustam ana shu jangda halok bo‘lgan (Qodisiya 637). Ikkinchi marta Y. Nihovand yaqinida arablarni to‘xtatishga uringan, 642-y.da bo‘lib o‘tgan janglarida ular Y.ning qo‘shinlariga qaqshatqich zarba berishdi. Xullas, bu gal ham forslar yengilgan. Y. qochishga majbur bo‘lib, turli viloyatlarda yurgan, oxiri Marvga tomon yo‘l oladi. 651-y.da u Marvda yerda bir tegirmonchi tomonidan o‘ldirilgach, sosoniylar sulolasi hokimligi xotima topdi.

N. “T.M.A.”da Y. hayoti va faoliyati haqida ma’lumot bergan. N. uni Shahriyorning o‘g‘li, Parvezning nabirasi ekanligini yozadi. Hukmronlik muddatini yigirma yil deb ko‘rsatadi va arab lashkaridan yengilib, qochib Marvga borgani va u yerda bir tegirmonchi uni oti va kiyimlarini egallash maqsadida o‘ldirganini qayd etadi. Y. nomini u asar xotimasidagi masnaviyda ham tilga oladi va shunday yozadi:

Agar Yazdijird o‘lsun ar Shahriyor,
Vagar Bahrom o‘lsun, gar Isfandiyor.

Ki, qo‘ydi vujud uyiga chun qadam,
Yana anga bo‘lmoq keraktur adam.

“S.I.” dostonining XIV bobidagi ushbu bayt ham Y.ga bag‘ishlangan:

Yana Yazdijird oldi mulk-u diyor,
Ki, derlar laqabda ani Shahriyor.

Yuqorida aytilganidek, N. “T.M.A.”da Y.ni Shahriyorning o‘g‘li deb ataydi: “Va ul vaqtda Yazdijird binni Shahriyor Istaxrda erdi, otasi Shahriyor Parvez o‘g‘li erdi”. Yuqoridagi baytda esa Shahriyor Y.ning laqabi sifatida tilga olingan.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Грантовский Э. и др. История Ирана. – М., 1972.*

Q.E.

YAZID – to‘liq ismi Yazid ibn Muoviya ibn Abu Sufyon. 645–683-yy.da yashagan. Ummaviylar sulolasidan bo‘lgan ikkinchi xalifa. Y.

islom tarixida mashhur kimsalardan hisoblanadi. Lekin bu mashhurlik ijobiy tomondan emas. Manbalarda u salbiy sifatlar b-n ta'riflanadi, ko'pincha mualliflar Y. haqida so'z ketganda nafratli ohanglarda yozadilar. Buning asosiy sabablari quyidagilardan iborat: Y. 680-y. 10-oktyabrda Karbalo dashtida Payg'ambar (s.a.v.)ning nabirasi Husayn (r.a.)ni, uning oila a'zolari va tarafdorlarini (jami 72 kishi) o'ldirgan; Ibn Utba boshchiligida qo'shin yuborib, Madina shahrini talon-toroj qildirgan; Makka shahriga hujum uyushtirgan. Bu hujum vaqtida muqaddas Ka'bada yong'in chiqqan; ichkilik ichgan, raqsga tushgan, itlar va maymunlar boqqan. Yuqoridagi ishlari tufayli uning nomi Sharq adabiyotida yomonlik, yovuzlik timsoliga aylangan. Mo'min mirzo qatl qilinganda Xuroson shoirlaridan Gulxaniy Astrobodiy quyidagi ruboiyni yozgani va bu she'r mashhur bo'lib ketgani bejiz emas:

Bozori zulm boz rivoji digar girift.
Z-on kofire, ki mo'mini dinro shahid kard.
Onjo Yazid omad-u kori Husayn soxt,
Injo Husayn omad-u kori Yazid kard.

Din mo'minni o'ldirgan kofirlar dastidan zulm bozori boshqacha tarzda qizidi. U yerda (ya'ni Karbaloda) Y. kelib Husaynni o'ldirgandi. Bu yerda Husayn Y. ishini qildi.

Y. nomi N. asarlarida ham tilga olingan. Jumladan, "H.A." dostonida shunday bayt bor:

Ismda ko'p keldi tafovut padid,
Biri Husayn o'ldi, birisi Yazid.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Зайниддин Восифий. Бадоеъ ул-вақоеъ. – Т., 1979.*

Q.E.

YAKQALAM – N.ning "X."da Y. timsoli Nizomiyga, uning ilk "Xamsa"siga ishoradir. Shu b-n birga, quyoshning chiqishidan botishigacha bo'lgan mamlakatlarni bir hukm ostida birlashtirgan shoh Iskandarga nisbatan ham ishlatiladi. "S.I."ning "Iskandar ishlarining tafsili" nomli XXIII bobida Iskandarning jahongir, mulkgirligidan so'ng ungacha bo'lgan jahondorlarning qadri tushdi, shikast etdi, deb shoir Iskandarni Y. deb ataydi:

Quyoshdek sipehr uzra tortib alam,
Yurib oldi olam yuzin yakqalam.

Ushbu baytga e'tibor qaratsak, N. alam – Y. shaklida qofiya yaratib, so'z o'yini hosil qiladi. Ya'ni alam so'zining birinchi ma'nosi azob-u alamlar bo'lsa, ikkinchi ma'nosi davlat atributlaridan biri bayroqdir. Jahondorlik dunyo shohlarining hammasiga ham nasib bo'lmagan, jahongirlikning azob-u alami ham, mashaqqatlari ham ziyoda bo'lgan. Chekkan alamga yarasha alam – bayroqlari yuqori ko'tarilgan, o'z davri hukmdorlariga bayroqdorlik qilgan kabi fikrlarni Iskandar misolida tushuntirib, poetik tasvirlaydi. Y.ning birinchi ma'nosi Iskandarning o'ziga ishoradir, ikkinchi ma'nosi ushbu bob syujeti misolida aytsak, shoh Iskandarning o'zi qo'lga kiritgan yigirmadan ortiq mamlakatlari va suv olamini bir hukm ostida birlashtirishdagi mahorati va maqomiga ishoradir.

459 nafar qalam ahliga to'xtalgan "M.N." asarini ushbu timsolga bog'lab, tarixiy-qiyosiy aspektda tahlil qilganimizda, ma'lum bo'ldiki, N. yagonalik va mohirlik ma'nosida Y. obrazini nafaqat mashhur shoir, mashhur asar yoki hukmdorlarga, balki mashhur xattotlar, adolatpesha qozilarga ham nisbat beradi. N. bu asarda Y. unvonini olgan mashhur xattot Mavlono Sulton Ali, adolatpesha qozi Xoja Xurdni ham tilga olgan. Bu haqda shunday ma'lumotlarni uchratamiz. "Mavlono Sulton Ali mashhadlig'dur. Bu kun Xurosonda va olamning aksar bilodida "nasta'liq" xatida qiblat ul-kuttobdur va kitobat mulkining qalamravi yakqalama anga musallamdur" qabilidagi e'tirofi fikrimizning isbotidir. Ushbu e'tirofdagi qalam b-n bog'liq "qiblat ul-kuttob" – kotiblar qiblasi nomli laqab va unvon haqida-

gi ma'lumot ham e'tiborga molik. Yoki "Xoja Xurd – Samarqand taxtining yakqalama qozisi va Ulug'bek Mirzo madrasasining mudarrisidir", degan ma'lumot fikrimiz dalili. Asarda N. lutf va mubolag'a usulida qalam tili, qalamzan, qalam ilgi iboralarini ham qo'llagan: "Mir Husayn Muammoiy – Nishopurdindur. Shahrda tahsil qildi. Oncha hamida axloq va pisandida atvori borkim, sharhidin qalam tili va qalamzan iligi ojizdur...". N. "X."da qo'llagan yakqalam timsoli Muhammad (s.a.v.), shoh Iskandar, Nizomiy va u yaratgan ilk "Xamsa"ga, turkiy til maqomiga nisbatan qo'llangan bo'lsa-da, umuman, poetik tasvir hamda obrazli fikrlashda yakqalam N.ning o'ziga, o'zi yaratgan ilk turkiy "X."ga, uning so'z olamidagi betakror ma'naviy xazina ekanligiga, so'z mulkidagi maqomiga nisbatan ishora borligini ham unutmasligimiz kerak. Ulug' shoirning ushbu bayti fikrimiz isboti:

Bu besh ganjnikim, kushod ayladim,
Varaq uzra oni savod ayladim.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ражабова Б. "Қуёшлиқ истасанг, касби камол эт" (Навоийнинг ҳуқуққа оид қарашлари хусусида) // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2013 йил 13 сентябрь.*

B.R.

YANGI ANIQLANGAN NAVOIY LUG'ATI – Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasining "Nodir nashr va qo'lyozmalar bo'limi"da PV 78 raqamli Nazar Ali Sayyidning "Navoiy asarlari lug'ati" saqlanmoqda. Qo'lyozma 22x12 sm hajmda bo'lib, 79 sahifadan iborat. Xati nasta'liq, poygirlari to'liq, qog'ozi novvot rang. Qo'lyozma taxminan XVI–XVII asrlarda Nusratulla Buxoriy tomonidan ko'chirilgan. Ushbu o'zbekcha-forscha lug'atning asliyati va qachon tuzatilganligi hozircha noma'lum. Lug'at titul varag'iga 1973-y., deb yozilgan. Bu uning kutubxonaga kelib tushgan vaqtini anglatadi. Qomusda, asosan, N., shuningdek, Lutfiy, Mir Haydar asarlaridagi o'zbekcha so'zlar fors tilida izohlangan. O'rta asr lug'atchilik an'analari usulida tuzilgan ushbu asar, muqaddimasida o'zbekcha so'zlarning yasalishi haqida umumiy ma'lumot berilgan. Lug'at eski o'zbek alifbosi bo'yicha tuzilgan. *Alif, b, t, s, sh, k, y* harflariga ko'plab misollar berilgani holda *ch, d, r, z, g', m, i* belgilariga misollar kamroq keltirilgan.

Qomus avvalida *ot, o't, tuz, to'sh, uz, it, yosh, o'q* kabi omonim va ko'p ma'noli so'zlar misolida o'zbek tilining boy va rang-barangligi haqida ma'lumot berilgan. Nazar Ali Sayyid quyidagi to'rtlikning birinchi misrasida *it* so'zi *kuchuk,* ikkinchisida *ket,* to'rtinchisida *itar* ma'nolarida ishlatilagnligini ko'rsatish maqsadida "M.L."dan misol keltiradi:

Ey raqib, o'zni anga tutsang ham it,
Bizga rahm aylab, aning kuyidin it.

Garchi bor do'zaxcha ishqing shu'lasi
Bizni o'z ilging bila ul sari it.

Ikkinchi faslda qarindoshlik terminlari izohlangan: *og'a-barodari buzrug, ini-barodari ko'chak, egach-hohari buzrug, singil-hohari ko'chak, yotlig'-duxtar, bo'ta-farzand.* Undan so'ng tana a'zolari keltirilgan: *engak-zanaxdon, ko'ksuk-siyna, manglay-peshona, tiz-zon-u, ern-lab, tish-dandon.* Lug'atdagi asosiy misollar N. asarlaridan olingan. Chunonchi, *uyat va uyal* so'zlari forscha *sharmandagi* ma'nosi b-n izohlangach, shoirning quyidagi baytlari keltiriladi.

Gulga farxunda jamolingdin uyat,
Sarvg'a toza niholingdin uyat.
Ey ko'z, onsiz o'zga ko'rmakni qilmishsen havas,
Hajr tig'idin o'yul yoxud Navoiydin uyal.

Ayrim so'zlariga Lutfiy, Mir Haydar asarlaridan misollar keltirilgan. Chunonchi *o'run* so'-

ziga Mir Haydarning quyidagi bayti keltirilgan: *o‘run-o‘rin – maqom va joygoh boshad:*

Bor edi bu toifa bizdin burun,
Jarga bilan dunyoda tutqon o‘run.

So‘z ma’nolari sodda, lo‘nda izohlangan: iya-ba ma’niyi sohib boshad, nazm:

Bir iyasiz it bo‘lub erdi Navoiy yorsiz,
Bo‘lmasun yo rabki, hargiz banda sultondin judo.

Agar so‘z ma’nosi keng o‘quvchilar ommasiga tanish bo‘lsa, misol berilmaydi: *egak-suxan, o‘rgamchi-ankabut, tiz-zonu, uchmoq-bihisht.* Ma’rifatli ota-bobolarimiz kelajak avlodga aniq ma’lumot qoldirish u-n so‘zning orfografiya va orfoepiyasiga alohida e’tibor berganlar. Arab yozuvida bir xil yozilib, turli ma’no anglatuvchi omograflar yoniga maxsus grammatik belgilar qo‘yganlar. Nazar Ali Sayyid *ur* va *o‘r* so‘zlari arab yozuvida bir xil yozilishini hisobga olib, ikkinchi so‘z *o‘r-chuqur* ma’nosini anglatishini ko‘rsatish maqsadida yoniga *imola* atamasini qo‘yadi.

K harfi lug‘atda *kofi arabiy, g* esa *kofi ajamiy* atamasi orqali ko‘rsatilgan: *kengash-kofi avval arabiy va kofi soniy ajamiy ba ma’nii mashvarat***.** Lug‘at ma’lumotlari ayrim olimlarimizga eski o‘zbek tili tovush tizimi haqida fikr yuritayotganlarida u davrlarda yashamagan, u davr unlilari tizimidan bexabar Yevropa olimlariga emas, balki XIV–XIX asrlarda yashab, o‘z ko‘zi b-n ko‘rib, quloqlari b-n eshitib, qo‘llari b-n yozib qoldirgan ma’rifatli bobolarimiz ma’lumotlariga suyanishimiz lozimligini ko‘rsatadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

E.U.

YASOVUL (t.-mo‘g‘.) – 1. Yuqori mansabdagi amaldorlarga xizmat qiluvchi qurolli soqchi, posbon. 2. Hukmdor saroyidagi kichik amaldordan; Y.lar ba’zida taxt sohiblarining yashirin xizmatchilari ham hisoblangan. Y. ko‘proq ma’muriy vazifalarni bajargan. 3. Qorovulboshi; tartib va intizomni saqlovchi naqib. “M.Q.”ning avvalgi qismi 8-fasli “Yasovul guruhi zikrida”, deb nomlanib, unda N. yozadi: “Yasovulki, bir mazlum ishi keynicha borg‘ay va ul mazlumni zolimdin qutqorg‘ay. Agar muzd tilamagi maqdurdin ortuqroqdur, ul zolimga ulug‘roq o‘rtoqdur. Agar sa’yig‘a yarasha olur xayoli bo‘lg‘ay, ota merosi va ona sutidek haloli bo‘lg‘ay. Va agar tama’yi haqq us-sa’yidin kamdur, erlik va muruvvat anga musallamdur. Va agar sa’y qilg‘ay va olmag‘ay, muzdkim anga haqdur, ani desa bo‘lg‘aykim, valiyi mutlaqdur. Ko‘p eranlar bu ishni shior etibdurlar va bu suluk bila qulaiy maqosidg‘a yetibdurlar”.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ғиёс ул-луғот. Жилд 2. – Душанбе, 1988; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. – Т., 1984.*

M.A.

“YASOG‘LIQ VA QORA CHERIK ZIKRIDA” – “M.Q.” asarining “Avvalg‘i qism”i 9-fasli mamlakatdagi hukm yurituvchi, farmon beruvchi harbiy cherik haqida bo‘lib, N. bu toifani ham, asosan, tanqid qilish yo‘lidan borib tasvirlaydi. Asarda ularga ajratilgan bo‘lim muxtasar, ammo xarakterli chizgilari, jumladan, ularning xulq-atvori, yurish-turishlaridan tortib jamiyatda yetkazadigan zararlari obrazli bayon qilingan. Avvalo, shoir “Yasog‘liq va qora cherik zikrida”ni “Ya’juj va ma’juj” (oxir zamonda chiqadigan xunuk bashara, bahaybat, hamma narsani nobud qiluvchi, odamxo‘r maxluq) xaylig‘a sherik, deya nihoyatda keskin tashbeh qo‘llaydi. Asardan ma’lum bo‘lishicha, ular shunchalikki, kulfat yetkazib tinmaydi, askar tortib yurishlaridan hech bir naf’ yetmaydi. Butun ishlari talay olganni talab, begona yurtlarda esa chigirtkadek

ko‘kargan nimaiki bor, yeb, yalab ham qo‘yadi. Shoir taajjublanib bayon etishicha, insoniylik b-n ular orasida go‘yo xusumat, musulmonlik b-n nizo bordek. Shunday bo‘lmasa, fahm-idrok, aql-insofni onglaridan chiqarib yuborisharmidi?! Qaysi tomonga yuzlanishsa, undan hech qaytish yo‘q, istihola begona, kecha-yu kunduz g‘aflat uyqusida, hatto tanalari issiq-sovuqni, ochliq-yalang‘ochlikni farqlamaydigan holga kelib qolganlari bor.

Shuni ham aytish lozimki, Yaratganning har nav elga inoyati bo‘lganidek, “Yasog‘liq va qora cherik zikrida” ahli orasida yaxshi fazilatlilari ham borligi, ularda eranlarning xislatlari mujassamligi adib tomonidan urg‘ulangan.

N. kuyinib yozadiki, odamiysizlikda hayvon ulardan uyalar darajada: o‘z sipohiylarining mollarini bu buzuq qavm tekinga tortib olishadi. Fasl oxiridagi ruboiyda yuqoridagi fikr-qarashlar yanada mahorat b-n nazmda ifodalangan:

Ul qavmdin a’juba xaloyiq bo‘lmas,
Kim, me’dalari harom erdin to‘lmas.
O‘lguncha balo chekib erurlar mavjud,
Chin bo‘ldi bu da’voki, yasog‘liq o‘lmas.

Shuning u-n ijodkor mavzuni odamzod jazo bera olishi juda mushkul bo‘lgan taoifaga Allohning balosi yog‘ilgay, degan fikr b-n yakunlaydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

S.O‘.

YASRIB – Madinayi munavvaraning qadimiy nomi. Ilk o‘rta asrlardan Madina deb yuritilgan. N. “Xam.M.” asarida ustozi Abdurahmon Jomiyning o‘zi tug‘ilgan Jom viloyatidan Hirotga kelishini Muhammad (s.a.v.)ning Makkadan Madinaga ko‘chishiga qiyoslagan edi:

Quyosh ul nav’ki, Mag‘rib sori,
Yo Nabi, o‘ylaki, Yasrib sori.

Keyinchalik Davlatshoh Samarqandiy ushbu tashbehni boshqacharoq shaklda N.ning o‘ziga nisbatan qo‘llaydi:

Onchunon, k-az maqdami Sayyid shuda Yasrib aziz,
Gasht dorulfazli olam az vujudi o‘ Hiri.

Tarj.: Muhammad (s.a.v.) qadami tufayli Madina aziz-u mukarram bo‘lgani singari, Alisher Navoiyning muruvvat va saxovat uyg‘unlashgan faoliyati tufayli Hirot ham olamning dorulfazliga aylandi.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ғиёс ул-луғот. Жилд 2. – Душанбе, 1988; Давлатшоҳ Самарқандий. Тазкират уш-шуаро. – Хўжанд, 2015.*

E.O.

YASSAVIY AHMAD (XI asr 2-yarmi – 1166/67 Sayram) – tariqat piri, mutasavvif shoir. N. “Turkiston mulkining shayx ul-mashoyixi” deb ta’riflagan Y.A. ma’rifat va futuvvat ahlidan bo‘lmish Shayx Ibrohim oilasida dunyoga keladi. Uning hayoti va faoliyati afsona-rivoyatlarga yo‘g‘rilib, qancha yashagani turli-tuman talqin qilinib kelyapti. Uni 120, 125, hatto 130 yil mr ko‘rgan deydilar. U 63 yoshga to‘lganida, yer yuzida Payg‘ambar (s.a.v.)dan uzoq yashashga andisha qilib, bir chillaxona qazdiradi va umrining oxirigacha tashqariga chiqmay, o‘sha joyda hayot kechiradi.

Onasi Shayx Ibrohimning xalifasi Muso Shayxning qizi Oysha xotun edi (Uni Qorasoch momo ham deydilar). U ham ota, ham ona tomonidan shayxzodadir. Y.A. Sayramdagi ajdodlarini Hazrat Ali (r.a.)ga bog‘laydigan xojalar sulolasiga mansub. U oilada ikkinchi farzand hisoblanadi. Gavhari Shahnoz ismli opasi bo‘lgan. Y.A. tug‘ilgandan ko‘p o‘tmay onasi, 7 yoshida

esa otasi dunyodan o‘tib, uning tarbiyasi opasi Gavhari Shahnoz zimmasiga tushadi. Keyin ular Yassi shahriga ko‘chib borishadi va shu yerda u tariqat yo‘lidagi ilk ustozi Arslonbob b-n uchrashadi. Bu haqda uning o‘zi keyinchalik hikmatlarida shunday yozgan edi:

Yetti yoshda Arslon bobom izlab topti,
Har sir ko‘rub, parda birla bukub yopti,
Bihamdulloh, ko‘rdum, dedi, izim o‘pti...

Tariqat talabiga ko‘ra, solik biror yetuk shayxga qo‘l berib, uning rahnamoligida riyozat bosqichlarini bosib o‘tadi. Lekin ba’zi so‘fiylar bunga ehtiyoj sezmaydilar. Chunki ularni Xizr (a.s.), Muhammad (s.a.v.) yoki o‘tgan buyuk avliyolardan birining ruhi g‘oyibona tarbiyalaydi. Bu hodisa tasavvufda uvaysiylik, deb ataladi. Y.A. ham uvaysiy shayxlar sirasiga kiradi. Rivoyat qilishlaricha, Muhammad (s.a.v.) sahobalari b-n g‘azotga ketayotganlarida Jabroil (a.s.) jannatdan bir tovoq xurmo keltiradi. Ittifoqo, bir dona xurmo yerga tushadi. Jabroil (a.s.) bu xurmo bir necha vaqtdan keyin dunyoga kelajak Y.A.ning nasibasi ekanligidan xabar beradi. Payg‘ambar (s.a.v.) sahobalariga yuzlanib:

– Bu omonatni egasiga kim yetkazadi? – deb so‘raydilar.

Hech kim bu ishga jur’at qilmaydi. Shunda Arslonbob:

– Agar lozim ko‘rsangiz, bu vazifani men o‘z zimmamga olsam, – deydi. Payg‘ambar (s.a.v.) o‘z muborak qo‘llari b-n xurmoni uning og‘ziga solib qo‘yar ekan, Y.A.ning ta’rif-tavsifini keltirib, uning tarbiyasi b-n shug‘ullanishni amr etadilar. Y.A. 7 yoshda ekan, Arslonbob uni izlab keladi. U maktabdan qaytayotgan Y.A.ni o‘ziga ma’lum ishoralarga ko‘ra tanib, unga salom beradi. Ahmad javob qaytarib, o‘ziga atalgan “omonat”ni so‘raydi. Arslonbob Allohning irodasiga, uning valiyligiga qoyil qoladi. Bu haqda Y.A. hikmatlaridan birida:

Yetti yoshda Arslonbobga qildim salom:
“Haq Mustafo omonatin qilgin in’om”, –

deb yozgan edi. Bugina emas, Y.A.ga yoshligidanoq Xizr (a.s.)ning nazari tushib, undan turli kashf-u karomatlar sodir bo‘lgan.

Tasavvufda har bir pir muridni o‘z bilimi va iste’dodi darajasida tarbiyalagach, layoqatiga qarab, uni o‘zidan kuchli pirlarga yo‘llagan. Shu tariqa ko‘p so‘fiylar bir necha pirning tarbiyasini olganlar. Arslonbob ham Y.A.ning boshlang‘ich tarbiyasini nihoyasiga yetkazgach, uni o‘sha davrdagi ilm-madaniyat markazlaridan biri bo‘lgan Buxoroyi sharifga yo‘llaydi. Bu yerda u diniy va tasavvufiy ilmlarni chuqur o‘rganishga kirishadi, arab va fors tillarini mukammal o‘zlashtiradi. Buxoroda uning hayotida muhim ahamiyat kasb etgan voqea yuz beradi – u o‘sha zamonning buyuk shayxi Yusuf Hamadoniy b-n uchrashadi va unga murid bo‘ladi. Y.A. Hamadoniyning 3-xalifasi bo‘lgan. Yusuf Hamadoniy vafot etgach, uning o‘rnini avval Abdulloh Barraqiy, keyin esa Hasan Andoqiy egallaydi. Andoqiydan so‘ng irshod xirqasi Y.A.ga topshirilgan. Bir muddat xonaqoh murshidi sifatida faoliyat ko‘rsatgach, u ustozining ma’naviy ishoratiga ko‘ra, o‘z o‘rnini ham, muridlarini ham Abdulxoliq G‘ijduvoniyga qoldirib, Yassiga qaytadi. Bu yerda xalqni islomga, tariqatga da’vat etib, yassaviya degan yangi va ilk turkiy tariqatga asos soladi. Unda islomiy tasavvuf g‘oyalari ilk marta turkiy tilda talqin va targ‘ib qilingan. I.Haqqulning yozishicha, u Qur’oni Karimni asos qilib olib, forsiy tasavvuf tajribalaridan foydalangan holda, turkiy axloq, qadimiy turkiy dunyoqarash va ishonchlarni ham o‘ziga omixta qilgan.

Yassaviylik jahriy zikrga asoslanadi. Jahriyaning mohiyatini nido va hayqiriq tashkil etadi. Muridlar shayx atrofida halqa va to‘da bo‘lib, jo‘r ovoz b-n Allohga zikr bajo keltirib, munojot qilardilar. Bunday zikr paytida bo‘g‘izdan arraning tovushiga o‘xshagan ovoz chiqqani u-n u “zikri arra” deb ham yuritilgan. Y.A. hayotligidayoq uzoq o‘lkalarga muridlarini jo‘natib, o‘z tariqatini keng tarqatishga harakat qildi. Yassaviya tariqati avval Sayhun va Toshkent hududida, keyinroq Xorazm, Movarounnahr, Xuroson,

Ozarbayjon, va hatto, Onado‘li diyorlarida keng tarqaldi, yassaviylik shimolda Qozongacha, G‘arbda Bolqon yarim oroligacha yetib borgan.

Ma’lumki, she’rning ta’sir kuchi beqiyosligi va yodda qolishi osonligini payqagan tasavvuf shayxlari bu borada o‘z ta’limotlarini omma orasiga yoyish u-n she’riyatdan bir vosita sifatida foydalanganlar. Forsiy tasavvuf shayxlari bu borada ko‘proq ruboiyga tayangan bo‘lsalar, turkiy tasavvuf shayxlari hikmat aytganlar. Y.A. ham oddiy xalq ommasi anglaydigan uslubda so‘fiyona hikmatlari – she’rlari b-n atrofidagi odamlarni Haq yo‘liga chaqiradi, ularning ma’naviyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. N.Mallayev Y.A. hikmatlarining ko‘pchiligi muayyan bir kuyga muvofiq yaratilib, shayx-u muridlar tomonidan kuylangani, va’zlarda o‘qilgani haqida ma’lumot bergan edi. Ayni jihatdan, Y.A. turkiy adabiyotda hikmat janrining asoschisi ham hisoblanadi. U “o‘z ona tilini ilk bora tariqat tili maqomiga ko‘tardi. Uni arab va fors tasavvuf tili davrasiga qo‘shdi” (I.Haqqul).

Y.A. haj ziyorati davomida Markaziy Osiyo, Eron, Arabistonni kezib chiqadi. Ko‘p shayxlar, aziz-avliyolar va mashhur ruhoniylar b-n uchrashadi. XII asrgacha Turkiston o‘lkasi haqida mensimay so‘zlaganlar endi uni hayajon va ehtiros b-n tilga oladilar, uni tabarruk o‘lka sifatida qayd etadilar. Bu esa muborak Y.A. nomi b-n bog‘liq edi. Uning nomi XII asrdan keyin Turkistonni avliyolar manziliga aylantirdi. Y.A. karomatlar va maqomotlar b-n yashardi va barcha turkistonliklar unga ixlos-u e’tiqod qilardi.

N. ham “N.M.”da Y.A. haqida yuksak fikrlar bildiradi: “Maqomoti oliy va mashhur, karomoti mutavoli (uzluksiz) va nomahsur (cheksiz) ermish. Murid-u ashobi g‘oyatsiz va shoh-u gadoning irodat va islosi ostonida nihoyatsiz ermish. Imom Yusuf Hamadoniyning as’hobidindur. Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy bila suhbat tutubdur va Xoja Abdulloh Barraqiy va Xoja Hasan Andoqiy bilaki, ham Imom Yusuf Hamadoniy muridlaridur. Imom qaysi biyik marotibga yetibdurlar, musohib bo‘lubdur va ro‘zg‘or mashoyixidin ko‘p buzurgvorlar aning tarbiyatin topibdurlar va Shayx Raziiddin Ali Lolo shayxi buzurgvor Shayx Najmiddin Kubro xizmatig‘a yetardin burun Xoja Ahmad Yassaviy xizmatida bo‘lur erdi va aning xonaqohida aning irshodi bila suluk qilibdur va aning mazori Turkistonda – Yassi degan yerdaki, aning mavlid va mansha’yidur (kelib chiqish joyi), voqe’ bo‘libdur va Turkiston ahlining qiblayi duosidur”.

O‘z tuzuklari-da: “...mashoyixlar, so‘fiylar Xudoni tanigan oriflardir. Ularning xizmatlarida bo‘lib, suhbatlar qurdim va oxirat foydalarini oldim. Ulardan Tangri taoloning so‘zlarini eshitib, karomatlar ko‘rdim, favqulodda odatlarini mushohada etdim va suhbatlaridan rohatlanib, huzur qildim”, – deb lutf etgan Amir Temurning, ayniqsa, Y.A.ga ixlos-e’tiqodi baland bo‘lib, Yassi shahrida uning qabri ustiga mahobatli maqbara qurdiradi. Turk sultoni Yildirim Boyazid ustiga yurishdan oldin mashoyixlar sarvaridan fol ochganida: “Har qachon bir mushkulotga duch kelsangiz, ushbu ruboiyni 70 marta o‘qing”, – degan bashorat chiqqan ekan:

Yaldo kechani sham’i shabiston etkan,
Bir lahzada olamni guliston etkan,
Bas, mushkul ishim tushubtur, oson etkil,
Ey barchaning mushkulini oson etkan.

Amir Temur bu ruboiyni takrorlab, Boyazid ustidan g‘alaba qozongan ekan.

Asosiy shiori luqma halolligi bo‘lgan tariqat ahli faqat o‘z peshona teri evaziga kun ko‘rishni maqsad qilib olganlar. Qo‘lidan ish keladigan har bir so‘fiyning biror-bir foydali mehnat b-n shug‘ullanishi shart bo‘lgan. Tasavvuf tarixiga nazar tashlasak, dongdor shayxlarning ham ko‘pchiligi muayyan kasb b-n shug‘ullanganliklarini ko‘ramiz. Y.A. ham buyuk salaflari an’anasini ixlos b-n davom ettirgan. U har kunini uchga taqsimlagan: 1-qismida muridlar b-n shug‘ullanib, ularga ilm-u irfondan saboq bergan, 2-qismida ibodatlari b-n mashg‘ul bo‘lgan, 3-qismida esa qoshiqtaroshlik qilgan.

Manbalarda yozilishicha, Y.A.ning Ibrohim ismli o‘g‘li va Gavhari Xushnoz (yoki Gavhari Shahnoz) ismli qizi bo‘lgan. O‘g‘li yosh o‘lib ketadi, qizining nasli esa uzoq davom etadi.

Y.A. hikmatlari qadimdan turkiy xalqlar orasida mashhur bo‘lgan. Bu hikmatlarning tili hayratlanarli darajada o‘z davri tilidan uzoqlashib, XVII–XVIII asrlar tilini, yanada aniqrog‘i, bir qadar zamonaviy tilni eslatishi ularning tildan tilga ko‘chib, sayqallanib, o‘zgarib kelishidir. “Devoni hikmat”ning qadimiy qo‘lyozmalari topilmagan. Uning mavjud nusxalarini keyingi asrlarda xalq og‘zidan yozib olib, kitob holiga keltirishgan. O‘tmishda shoir qo‘lyozmalari “Devon” deb atalmagan, balki “Hikmat” nomi b-n yuritilgan. Hikmatlarning ilk toshbosma nashrlarini amalga oshirgan noshirlar hikmatlar kitobini boshqa mumtoz shoirlarniki kabi “Devon” deb atashni muomalaga kiritishgan. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik markazi qo‘lyozmalar fondida Y.A. hikmatlarining Toshkent, Buxoro, Istanbul, Qozon shaharlarida bosilgan 33 ta ana shunday toshbosma nashrlari saqlanadi. Markaz fondidagi shoir hikmatlarini o‘z ichiga olgan qo‘lyozmalarning umumiy soni esa 175 ta. O‘z-o‘zidan, uning tarkibiga Y.A.ga mansub bo‘lmagan hikmatlar ham kirib qolgani tabiiy. Bu hol ba’zi tadqiqotchilarda shubha tug‘dirgani, “Yassaviy hikmat yozganmi o‘zi?” degan savollarni keltirib chiqargani ma’lum. Lekin Y.A.ning qo‘lga qalam olib yozmasa-da, hikmat aytgani aniq. Devondagi quyma she’rlar, bayt va tashbehlar shundan dalolat beradi.

Tasavvuf tarixidan ma’lumki, tariqat pirlari ko‘pincha zikr-u samo’ majlislari yoki muridlari b-n suhbatlar paytida badehatan so‘fiyona ruhdagi, axloqiy mazmundagi she’rlar va hikmatlar aytganlar va keyinchalik bu namunalar shogirdlari tomonidan to‘planib, kitob holiga keltirilgan. Y.A. ham jahriy zikrlar paytida g‘aybiy ilhom natijasida hikmatlarini badehatan aytgan, ular ravon va zohiran sodda bo‘lgani u-n shogirdlari osongina yodlab olishgan va tildan tilga o‘tib, turkiy tilli xalqlar orasida keng tarqalgan. ham bir necha asrlar davomida og‘izdan-og‘izga o‘tib, o‘zgarishga uchragan.

Ma’lumki, shaklan go‘zal, mazmunan teran, badiiy yuksak baytlarni Sharq adabiyotida shohbayt deyishadi. Y.A. devonida ham shunday mukammal baytlar, go‘zal misralar, ohorli tashbehlar mavjudki, ifoda tarzi, tili o‘zgarishga uchragani b-n mohiyati o‘zgarmagan, ularning qomusiy bilim, katta hayotiy tajriba, yuksak she’riy salohiyati bo‘lmagan bir kishining aytishi amrimahol. Bu bayt, misra va tashbehlarni, ta’bir joiz bo‘lsa, bemalol shohbayt, shohmisra va shohtashbeh deb aytish mumkin. Zero, ular shoirona tizmalar, badiiy salmog‘i baland she’rlar, har biri bir hikmat darajasidagi quyma bitiklar. Chunonchi, baytlar:

Afsonadur shariat, farzonadur tariqat,
Durdonadur haqiqat, oshiqlarga munosib.
Chin olim yostug‘in toshtin yaratti,
Nima uqti, ani olamga aytti.

Misralar:

Toliblarga durr-u guhar sochtim mano.
Qanot qoqar uchar qushdek ko‘nglim mening.

Yoki mana bunday tashbehlar, hikmatli iboralar, fikrlarni shoirona ta’b va zavq sohibi bo‘lmagan kishining aytishi qiyin: “shavq sharobin ichtim mano”, “daryo bo‘lub toshtim mano”, “ishq do‘konin qurdim mano”, “dunyo qo‘ysang, ishing bitar”, “ko‘ngul qushi lomakonga yetdi”, “ich-u toshim Haq nuriga to‘ldi”, “zikr jonni rohati”, “zavq daryosi mavj urdi”, “so‘ngaklarim Alloh dedi” va h.k.

Y.A. hikmatlarida Qur’oni Karim ma’nolari talqini, islom ahkomlari va tariqat asoslari targ‘ibi, ilohiy ishq tarannumi, pand-nasihat, ezgu axloq ta’rifi, yomon xulqlar, dunyo, nafs tanqidi, falsafiy muhokama-mushohada, hasbi hol ohanglari, o‘zni yozg‘irish – mazammat etish g‘oyalari yetakchi o‘rin tutadi.

Y.A. hikmatlarida ilohiy ishq mavzusi ham hassoslik b-n qalamga olingan. Bu – bejiz emas. Zero, tasavvufda ishq – Allohni anglash vositasi. Dunyo ishq tufayli yaratilgan. Inson ham kamolotga ishq tufayli erishadi. Bir so‘z b-n aytganda,

Alloh – Olam – Odam munosabatlari ishq asosiga qurilgan. Binobarin, ko‘nglida ishqi yo‘q odam odam emas, u – hayvon, u – kesak. Shuning u-n ham:

Ishqsiz kishi odam ermas, anglasangiz,
Bemuhabbat – shayton qavmi, tinglasangiz,
Ishqdin o‘zga so‘zni agar so‘zlasangiz,
Ilkingizdan imon, islom ketti bo‘lg‘ay.

Shu tariqa, tadqiqotchilarning guvohlik berishlaricha, buyuk mutasavvif shoir Qul Xoja Ahmad, Qul Ahmad, Miskin Ahmad, Y.A. kabi taxalluslar b-n 4400 atrofida hikmat aytgan. Bundan tashqari, uning “Faqirnoma” risolasi ham mavjud. Ba’zilar “Yassaviy qalamiga mansub “Manoqibnoma” ham bo‘lishi kerak, demoqdalar”. Shuningdek, “Tariqat odobi” risolasi va bir qator boshqa asarlar ham unga nisbat beriladiki, ularning mualliflik masalasi hali uzil-kesil hal qilinmagan.

Y.A. tasavvuf piri sifatida yangi turkiy tariqatga asos solibgina qolmay, shaklan sodda, usluban ravon, mazmunan teran, badiiy yuksak hikmatlari orqali hikmat aytish an’anasini boshlab bergan va turkiy adabiyotga katta ta’sir ko‘rsatgan siymodir. Bu an’ana uning shogirdlari va izdoshlari tomonidan izchil davom ettirilib, o‘ziga xos adabiy maktabga aylangan. Xususan, Sulaymon Boqirg‘oniy, Yunus Emro, Muhammad Shayboniy, Qul Ubaydiy, Kamol Shayx Iqoniy, Mavlono Shams O‘zgandiy, Azimxoja Eshon, Huvaydo, Zaliliy, Maxtumquli, Majzub Namangoniy, Shayx Xudoydod, Yusuf Bayzoviy kabilar turkiy hikmatnavislik maktabining eng yorqin namoyandalari hisoblanadilar. M-n, Yunus Emro “Devoni hikmat”dan shu darajada ta’sirlanganki, hatto uning ba’zi she’rlarini bevosita hikmatlarning she’riy tarjimasi deyish mumkin. Binobarin, Y.A.ning turkiy xalqlar ijtimoiy-falsafiy tafakkur ta-raqqiyotidagi xizmati beqiyos.

Ad.: *Аҳмад Яссавий. Ҳикматлар. – Т., 1991; Аҳмад Яссавий. Девони ҳикмат. – Т., 1992; Хожа Аҳмад Яссавий. Девони ҳикмат. Янги топилган намуналар. – Т., 2004; Хожа Аҳмад Яссавийнинг янги топилган ҳикматлари. – Сайрам, 2004; Хожа Аҳмад Яссавий. Девони ҳикмат. – Т., 2006; Аҳмад Яссавий. Сулаймон Боқирғоний. Ҳикматлар куллиёти. – Т., 2011; Аҳмад Ясавий. Сулаймон Боқирғоний. Ҳикматлар. – Т., 2013. Темур тузуклари // “Шарқ юлдузи”, 1989, 8-сон; Рустамов Э. Аҳмад Яссавий ҳикматларида тарих ва садоси // “Ўзбек тили ва адабиёти”, 1972, № 4; Ҳаққул И. Тасаввуф ва шеърият. – Т., 1991; Карим Ғ. Муқаддима // ОзР Ға Шығыстану институнындағи Қожа Аҳмет Иасауи хикметтерінін қолжазба каталогы. – Түркістан, 2006; Яссавийлик // ЎзМЭ. 10-жилд. – Т., 2005; Абдуллаев А. “Девони ҳикмат”да яссавия тариқати ғоялари // “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2005, № 6; Турар У. Тасаввуф тарихи. – Т., 1999; Хожа Аҳмад Яссавий: ҳаёти, ижоди ва анъаналари. – Т., 2001; Яссавий ким эди. Мақолалар ва “Ҳикматлар”дан парчалар. – Т., 2004; Жабборов Н. Хожа Аҳмад Яссавий – тасаввуф осмонининг порлоқ қуёши. – Т., 1994; Очилов Э. “Туркистон аҳлининг қиблаи дуоси” // Барҳаёт сиймолар. – Т., 2012.*

E.O.

YASSI (asli – Saksi) – Turkiston shahrining qadimiy nomi. Y. tarixiy-geografik toponim sifatida tarixiy va adabiy manbalarda ma’lumotlar uchraydi. Ahmad Yassaviyning ulug‘ nomi, “Devoni hikmat” asari va Sohibqiron Amir Temurning uning sharafiga Y.da qurdirgan mahobatli maqbarasi (1396–1397) ma’lum ma’noda Y.ni dunyoga mashhur qilgan.

N.ning “N.M.” tazkirasida ham Y. tarixiy-geografik toponim sifatida tilga olingan. Asosan, Ahmad Yassaviy va uning ayrim izdoshlariga bag‘ishlab bitilgan fiqralarida uchraydi va ba’zi o‘rinlarda Y. *“Turkistonda, Yassi degan yerdaki”* tarzida bitiladiki, bundan Y. va Turkiston bir tarixiy-geografik toponim ekanini anglash mumkin. M-n, N. tazkiraning “Xoja Ahmad Yassaviy”

nomli fiqrasida Yassi haqida shunday ma'lumot bitilgan. N. unda "Turkiston mulkining shayx ulmashoyixidur. Maqomoti oliy va mashhur, karomoti mutavoli va nomahsur ermish" deb yozar ekan, yana muallif ushbu fiqrada "...aning mozori Turkistonda, Yassi degan yerdaki, aning mavlid va mansha'dur, voqe bo'lubdur va Turkiston ahlining Qiblayi duosidur", – deb yozgan xabarda Y. shaklida tilga olgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

B.R.

"YATIM VA LAIMLAR" – "M.Q."ning o'ttiz ikkinchi fasli Y. va L.lar zikriga bag'ishlanib, unda sayoq, xasis va nokas kimsalarga xos illatlar bayon qilinadi. Bunday odamlar o'zlari musulmon ko'rinsalarda, tabiatlaridagi pastkashlik, razillik, bezorilik sabab tirikchilik o'tkazish u-n biror kasb yoxud hunar egallamaydilar, xulq-atvoridagi yirtqichlik va hayvonlikni o'zlariga shior qilib oladilar. N. bu haqida: "Yatimki pichoq urmoq aning ishi bo'lg'ay, o'zi telba it, pichoq aning tishi bo'lg'ay. Sog'lig'ida qutuz it va usrukligida qochib andin yuz it. Panjalari nishi ajal qullobi, nechukkim dasht siboyi, o'lturur kun uchun iymon duosidek o'rganib ruboiy. Yaxshi-yamon so'kunj etkurib, aqrabdek nechaki etsa nish urub. Ne aql alarda ne din, ne hayo alarda va ne tamkin. Ishlari noe'timodlig' va nopoklik, varzishlari bemuruvvatlig' va beboklik. Shahrning soir arzoli hasharat ul-arz, xaloyiqg'a alardin ehtiroz vojib, balki farz", – deya mazkur qavmning qabihligi, razolat va zalolat botqog'iga botgani, ulardan elga turfa ziyon-u zahmat yetishini qattiq qoralaydi va Nabiy (s.a.v.)ning "Aziyat yetkazuvchilarni o'ldiringlar" mazmunidagi mazkur fikrlari b-n quyidagicha xulosa qiladi:

Xaloyiq iyzo alarg'a sifot,
Nabiy dedikim: "Uqtul ul-muziyot".

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

E.Q.

YAXSHILIK – 1. Yaxshi xislat, xulq-atvor kabilarga egalik; 2. Ixtiyoriy ravishda biror kishining manfaatini ko'zlab ish tutish, biror manfaat yetkazish; mehribonlik; xayrli ish, ezgulik. Kishilik jamiyatidagi eng xarakterli falsafiy kategoriyalaridan biri bo'lmish Y. haqida diqqatga molik nuqtalarni N. o'z asarlari qatiga ustalik b-n singdirib yuborgan. M-n, "G'.S." devonidagi bir g'azalda husni matla' san'atini qo'llagan N. yorni ham jon oluvchi, ham jon beruvchi sifatida tasvirlab, uning ma'no ko'lamini kengaytiradi.

Ey, mening jonim olib yaxshilig'ing,
Beribon jon yana yaxshi qilig'ing.

Keltirilgan tamsilda zohiran zidlik borday ko'rinsa-da, birinchidan, ishq odobi shuni taqozo etsa, ikkinchidan, muayyan holatning jamiyat tutumlarida va oshiq-ma'shuq munosabatlarida turlicha qabul qilinishi hayotning yakrang emasligini ko'rsatadi. Inchunin, kimningdir Y. qildim deb bilgani yomonlik bo'lib chiqishi va aksincha holatlar tez-tez uchraydi. Matla'ning birinchi misrasidan ayon bo'lishicha, Dilbar ozgina tabassum yo shirin kalom etish bilan bechora ishq tolibiga juda katta yaxshiliq qildim deb, sanaydi. Oshiqqa esa bu kutilmagan muruvvat juda "og'ir" kelib, xursandchilikdan jon berar holga keladi. Unga qaytadan tiriklik bag'ishlovchi ham Dilbarning o'zi, uning chiroyli qiliq (noz ila qarash, qosh qoqish, takalluf ila so'zlash, istig'noli yurishini)i ekanligiga endi ajablanmasa bo'ladi.

N. "S."sining XVIII bandida yuqoridagi baytga hamohang, hatto juda yaqin mazmundagi satrlar mavjud:

Shukrkim, behad erur yaxshilig'ing,
Andin ortuq dog'i yaxshi qilig'ing.

Bu bo'lim temuriy shahzodalardan biriga, aniqrog'i, Badiuzzamon mirzoga atalgan bo'lib,

uning Y.da bardavomligini, boz ustiga, go‘zal axloqli – xush qiliqli ekanligini madh etadi. Har ikki bayt tegishli asar matnida yaxlitlikda o‘qilsa, bir shaxsga qaratilgani ravshanlashadi. Bu fikrlarimiz N. lirik va epik merosining mushtarakligini dalillashga xizmat qilish barobarida “S.I.”dan olingan navbatdagi baytlar ham ayni to‘xtamga kelishda yordam beradi. Chunonchi, bundan oldingi misralarda manzil aniq aytib qo‘yilgan:

Yig‘ib yaxshiliq birla yaxshi qiliq,
Qiliqdek boshingdin-ayoq yaxshiliq.

Ko‘rinadiki, *yaxshi* lafzining uch o‘rinda takrorlanishi shoirning ko‘zda tutilgan maqsadga urg‘u berishiga yordam berish b-n birga kitobxonni Y.ning mohiyatini chuqurroq mulohaza qilishga undashi b-n ahamiyatlidir.

Husni davrig‘a vafo yo‘q, bu quyosh bot uyoqur,
Xo‘blardin xush erur yaxshilig‘-u yaxshi qilig‘.

“F.K.”dagi bayt mutolaasi ham uning oldingi misralarning mantiqiy davomi ekanini ko‘rsatadi. O‘zaro munosabatda xushaxloq, xushmuomalalik odamni ichdan nurlantirib, husniga husn qo‘shadi hamda qalblarda mehr-muhabbat paydo qilib, uzviy rishta hosil qiladi. N.ning ishqqa murojaat qilishidan ham murod shuki, kishi ishq tufayli ko‘rkamlashadi, qalbi ezgulikka to‘libtoshadi. Beqiyos go‘zallik ko‘ngilda tuganmas mehrni tug‘diradi. Bu esa hayotning davomiyligini ta’minlovchi bog‘dir.

Muddayi, chun daming ermastur issig‘,
Qilma sovug‘lug‘-u hamgomani yig‘.

O‘xshar axloqinga husnungki, erur,
Yaxshiliq lozimasi yaxshi qilig‘.

Darhaqiqat, “Dunyoni go‘zallik qutqaradi”, Payg‘ambarimiz (s.a.v.) aytadilarki: “*Bir-biringizga yaxshilik qilinglar, toki oralaringizda mehr-muhabbat paydo bo‘ladi*”.

Binobarin, yaxshi qiliq – Y. qilish, shirinso‘zlilik, andishali, ochiq chehrali bo‘lish, sirni saqlash, yaxshi niyat qilish kabilarni qamrab olinishi nazarda tutilsa, satrlardagi mazmunning hadisga muvofiqligi oydinlashadi. “Utlub ul-xayri inda hisonil-vujuhi” – “Yaxshilikni esa yuzi ochiq kimsalardan kutinglar”, hadisini esa N. o‘zining “A.” asarida tubandagicha badiiy talqin etgan:

Eyki, bir ishda hojating bo‘lsa,
Yaxshi yuzlukdin ista baxshoyish.
Toki baxshoyishidin avvalroq
Ko‘rmagidin yetushgay osoyish.

Bu ham shoir ilgari surgan badiiy niyatning nechog‘li zalvorli ekanligini urg‘ulaydi.

N. qit’alari uning badiiy mahorati ko‘zgusi hamda sharqona odob-axloq, insoniyatning azaliy hayot tarzini tartiblovchi qoidalar majmuyi hamdir. Fikrimizni “Yomon yomonlig‘ini qilmasa, yaxshilig‘cha bor va bir yaxshilig‘ qilsa, o‘n yaxshi qiliqcha” nomli qit’asi tasdiqlaydi:

Har kishikim topsa davron ichra joh-u e’tibor
Kim, aning zotida bedod-u sitam bo‘lg‘ay qilig‘.
Yaxshilig‘ gar qilmasa, bori yomonlig‘ qilmasa
Kim, yomonlig‘ qilmasa, qilg‘ancha
bordur yaxshilig‘.

Maz.: shoir kishilarga qarata: “Yaxshilik qila olmasang, hech bo‘lmasa, yomonolik qilmaki, shu ishingni o‘zi ham yaxshilikdir”, – deydi. Shuningdek, qit’a sarlavhasi Rasulullo (s.a.v.) ning bir Y.ka o‘n savob yozilishi haqidagi hadislariga ham ishoradir.

“H.A.” dostonida ham yuqoridagi fikr-mulohazalar birmuncha o‘zgarishlar b-n o‘z aksini topgan:

Yaxshilik ar aylamasang ish chog‘i,
Aylamagil bori yomonliq dog‘i.

“F.K.” devonida Y. va yomonlik falsafiy kategoriyasining qonuniyatlarini badiiy shaklga

solish b-n axloqiy qarashlarini bayon eta turib, insoniy munosabatlardagi eng murakkab holatlardan biriga shoir o‘z munosabatini bildiradi, ya’ni bu teskari aylanuvchi falakning ishlari ham tersdir. Ko‘pincha, kishining qilgan yaxshiligiga yomonlik qaytadi yoki javobsiz qoladi. Shuning u-n lirik qahramon o‘ziga “Menga yaxshilik yetadi deb, ko‘pam quvonma, eng to‘g‘risi, qilgan yaxshiligingni va o‘zgadan yetgan yomonlikni unut, eslama”, deydi:

Falakdin yaxshiliq yetkay debon,
ko‘nglungni shod etma,
Yomonlig‘kim etar, holo unut,
o‘tkanni yod etma.

“T.A.H.” asarida ham she’rda zikr etilgan ma’nolarni Luqmon hakim hikmatlarida ham o‘qish mumkin: “Ikisini doyim yod qilmoq kerak va ikisini unutmoq kerak. Burung‘i ikidin biri o‘zi qilg‘on yyaxshiligidur va biri g‘ayri qilg‘on yomonlig‘”. “N.M.” tazkirasida Abubakr Farro’ (q.t.s.)ga bag‘ishlangan faslda mashoyixning Y. borasidagi mulohazalari betakror va chuqur mazmunga, hayotiy asosga ega bo‘lib, o‘quvchiga turmush sabog‘ini beradi: “...Yaxshiliklarni yashirish yomonliklarni yashirishdan tuzukroqdir. Shunda najot topishga umid bor”.

“F.Sh.” dostonida esa inson hamma vaqt Y.da bardavom bo‘lishi lozimligi asar qahramonlarining fe’l-atvorlari, boshidan o‘tkazganlari, taqdiri orqali amaliy shaklda uqtirilgan:

Chu mahsulidin o‘lmas kimsa qochmoq,
Keraktur yaxshiliq tuxmini sochmoq

Shoir bu va keyingi baytlarda Sheruya otasining joniga qasd qilib, uni qatl etdigina emas, balki davron undan Farhod qonini istadi, kimki birovga zulm o‘tkazsa, albatta, unga jazo etishadi. Modomiki, shunday ekan, shoir Y. urug‘ini ekish darkor, degan fikrni ilgari suradi.

N. “X.” tarkibidagi “S.S.” 4-iqlim yo‘lidan kelgan sayyoh hikoyati qahramon Shoh Jo‘na va Mas’ud o‘rtasidagi do‘stlikni ulug‘laydi: Mas’udning saxovatliligi, Y. qilishga harisligini ibrat qilib ko‘rsatadi:

Ham demakdin ziyoda yaxshilig‘i,
Yaxshiroq olam ahlidin qilig‘i.

Yaxshilik birla gar qolur oti,
Bu erur mujibi mubohoti.

Senki mustahsan o‘tti avqoting,
Yaxshiliqqa chiqibdurur oting.

N. “Yaxshilik qilgan inson saodat xazinasiga erishadi”, – degan tajribalardan sobit bo‘lgan xulosani Mas’ud timsolida ko‘rsatib berar ekan, “S.I.” dostonida shoh Iskandarning ustozi Arastu orasidagi savol-javoblarda ham Y.ka chaqiriladi, yaxshi amalning mukofotidan bahs etiladi.

Shoh Iskandar savoli:

Yana so‘rdi doroyi hikmatsirisht:
Ki ey harfi hikmat sanga sarnavisht,

Bukim keldi har ishga bir xosiyat,
Manga zohir etkim, nedur kayfiyat?

Ne fe’leki keldi birovdin yomon,
Yomonliq ko‘rardin anga yo‘q omon.

Va gar yaxshiliq kimga af’ol erur,
Jazosi aning ganji iqbol erur.

Arastuning javobi:

Ki, har kim ayon etsa yaxshi qilig‘,
Yetar yaxshiliqdin anga yaxshilig‘.

Futuvvat tariqiga ko‘ra, kishi borini boshqalar bilan baham ko‘rishi, kishilarga Y. qilishi, muhtojlarning hojatini chiqarganidan xursand bo‘lishi kerak. Inchunin, ahli tariqatning futuvvatga bergan ta’rifida *“Umrni do‘stlar xizmatiga bag‘ishlash, faqat yaxshilikni o‘ylab, yaxshi-*

*lik qilishdan charchamaslik, ezgu xulq-atvorga ega bo‘lish, borini o‘zgalar bilan baham ko‘rib, muhtojlar hojatini chiqarish, pir-u ustozlar, do‘st-birodarlar nomusi, sharafini himoya etish, zohiran va botinan pok yurib, halol-pokiza insonlar suhbatini qozonish...”*ga targ‘ib etilgan bo‘lib, bularni N. asarlarida va N. mansub bo‘lgan naqshbandiylik suluki arkonlarining uyg‘unligida ko‘rinadi. “N.M.”da Abu Abdulloh Muqriy (q.s.)dan rivoyat qilinshicha, “...futuvvat – dushmang‘a Ya.dur”. Zotan, N.ning o‘zi ham hayoti davomida yozganlariga amal qilib yashagani esa yana bir namuna maktabidir.

Zero, N.ning Y. borasidagi teran adabiy-estetik qarashlari umrining so‘ngida yozgan “M.Q.” asarida sodda, tushunarli tilda, saj’ usulida aks etgan: “Yana bir amri azim ehsondurkim, aning bayonida ko‘p so‘z ayondur. Al-insonu ubayd al-ehson anga dol va halli jazo al-ehson ilal al-ehson – Alloh sanga qanday Y. qilsa, sen ham boshqalarga shunday Y. qilgin. Jami’ mazohib va milal ahli qoshida sobitdurkim, yaxshiliq jazosi yo‘qtur – bajuz yaxshiliq va nubuvvati lison mo‘jaz bayonig‘a dag‘i bu ishorat o‘tubdurkim, ahsin kama ahsana allohu ilayka – ul Hazrat mundoq amr etibdurki, Y. yetkur andoqkim, Tengridin sanga yaxshiliq yetibdur. Bu amr sifatig‘a mavsuf bo‘lmoq qadur, mundin azimroq amr ne nav’ bo‘la olur va anbiyo va hukamo va avliyo va uqalo va ulamo dag‘i munga mutaffiqdurlar va hech kishi muxolifat qilmaydurlar va mundin ehson tariq bilmaydurlar.

N. hazrat Ali (r.a.)ning rivoyati b-n aytilgan va she’rga solingan Payg‘ambar (s.a.v.) hadislari – hikmatli so‘zlariga bag‘ishlangan “N.J.” asarida berilgan “Vaz’ ul-ehsoni fi g‘ayri mavzi’ihi zulmun”, ya’ni “O‘z o‘rnida qilinmagan Y. – zulm bilan barobardir” degan mazmundagi ruboiy Y. haqidadir:

Yaxshiliq erur yamong‘a mahkam bedod,
Voqif bo‘l-u zohir etma har dam bedod,
Ehson erur andinqi, kerak kam bedod,
O‘z yerida qilmog‘ondur-u ham bedod.

She’rda Y. qilishning o‘z qoidalari, o‘rni, me’yori singari zaruriy masalalar ham ifoda etilgan bo‘lib, N. qalamga olgan mavzu haqida batafsil to‘xtalib, eng kichik detallari b-n anglatib bergani ayon bo‘ladi. Muallifdagi sinchkovlik, zukkolik va diqqat o‘quvchini, albatta, befarq qoldirmaydi. Y. qilishning shart-sharoitlari “N.M.” tazkirasida ham bot-bot tilga olingan. Xususan, Mahfuz b. Muhammad (q.s.) bag‘ishlangan 160-fiqrada bayon etilganlar e’tiborga sazovordir: “...kimning ko‘ziga faqat o‘z Y.lari ko‘rinsa, u odamlar nafratiga duchor bo‘ladi. Agar yomonliklari ko‘rinsa, odamlar nafratidan emin bo‘ladi. Odamlarning yaxshirog‘i qalbi sog‘lom va musulmonlarga xayrixoh bo‘lganidir”. Tazkiraning Abulabbos Ibn Ato (q.t.r.)ga ajratilgan lavhasida uning “Adab – do‘st tutilgan narsalar (yaxshiliklar) b-n to‘xtashdir. Buning ma’nosi nima? – deb so‘raganlarida, aytdi: Allohga pinhon va oshkor adab bilan muomala qilsang, ajamiy bo‘lsang ham adabli hisoblanasan”, deganlari esa yaxshi ish, yaxshi amal, yaxshi so‘z, yaxshi niyat odobning eng muhim atributi ekanligini ta’kidlashga xizmat qiladi.

Y. – mutlaq Y., u nurli ranglar b-n jilolanadi. Shoirning hayotga munosabati ham ana shunday. Uning u-n yomon shoh barcha yomon xislatlarni jamlagan odam, yaxshi shoh esa barcha ijobiy xislatlarni jamlagan shaxs. Yaxshi odam – xushaxloq, odil va oqildir. Yaxshilarning yaxshisi yer-u ko‘kni bir nazar b-n qamrab olgan Bahouddin Naqshband yoki oriflar orifi Abdurahmon Jomiy. Bular ilohiy uruj darajalaridan ildamlashib ketgan valiy insonlar.

Shuningdek, N. asarlarida Xizr (a.s.)ni Y. va fahm-u idrok timsoli sifatida tasvirlanganini kuzatish mumkin.

***Ad**.: Алишер Навоий. ТАТ. 10 жилдлик, 1-10-жилдлар. – Т., 2011.; Навоий асарлари луғати. – Т., 1972; Ҳусайн Воиз Кошифий. Футувватномаи султоний ёхуд жавонмардлик тариқати. (Форс-тожик тилидан Н.Комилов тарж.) – Т., 1994; Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Ҳадис*

ва ҳаёт (Нубувват ва рисолат китоби). – T., 2006; Қуръони Карим. Алоуддин Мансур таржимаси. – T., 1992.

S.O‘.

YA’JUJ VA MA’JUJ (ar.) – Qur’onda zikr etilgan buzg‘unchi qavmning nomi. Bu ikkisi Nuh (a.s.)ning o‘g‘li Yofas urug‘idan bo‘lib, ko‘p sonli mazkur qavmning yer yuziga chiqib kelishi qiyomat alomatlaridan hisoblanadi. Y.M. badtiynat va badkirdor bo‘lishgan. Quloqlari shunchalik katta ekanki, birini ostlariga to‘shab, ikkinchisi b-n ustlarini yopib yashar ekanlar. Bu qavm uzun va burama oyoqlari b-n odamlar va hayvonlarni tuzoqqa tushirib, keyin yer ekan. Y.M. o‘tgan yo‘lda biror tirik jon qolmasmish. Odamlar ularning dastidan dodga kelgan edilar. “Kahf” surasida keltirilishicha, 2 tog‘ orasida yashaydigan va biror gapni anglamaydigan qavm Zulqarnaynga tog‘lar ortidagi Y.M.dan, ularning buzg‘unchiliklaridan arz qiladilar. Zulqarnayn bu qavm yordami b-n ular hamda Y.M. o‘rtasida ulkan va mustahkam temir devor quradi. Y.M. bu devorni teshib ham, oshib ham o‘tolmaydilar. Y.M.lar tuni b-n bu devorni yalab chiqib, tonggacha yupqalashtirib qo‘yar ekanlar. Lekin quyosh nuri chiqishi b-n u asl holiga qaytar emish. Shu tariqa jahongirdan madad so‘ragan qavm tinchlik-xotirjamlikka erishadilar. Iskandar devorining ochilib, Y.M.ning chiqib kelishi qiyomat alomatlaridan biri hisoblanadi. Ular benihoya ko‘p bo‘lganliklaridan xuddi sel kabi oqib keladilar. Yo‘llarida uchragan narsani yeb, daryolarning suvini ichib tugatadilar. Yer yuzini fasodga to‘ldiradilar. Shunda Iso (a.s.) ko‘kdan inib, Dajjolni o‘ldiradi. Y.M. esa uning duosi b-n ko‘r bo‘lib o‘ladi. Lekin ularning qachon yer yuziga chiqishlarini Alloh taolodan boshqa hech kim bilmaydi.

Qur’oni Karimda, Zulqarnayn haqidagi qissa va afsonalarda, irfoniy adabiyotda Y.M. haqida ma’lumot berilib, keyinchalik ular ramziy ma’no kasb etgan. Uni tabiatga va nafsga, Iskandar devorini esa inson jismiga nisbat beradilar. “S.I.” (“Iskandar devori”) aslida inson jismi timsoli – uni o‘rtadan ko‘taribgina Haqqa yetish mumkin. “Ilohiynoma”da bu haqda Attor shunday yozadi:

So‘rarsen: ne emish saddi Skandar,
O‘zingdirsen o‘zingga saddi akbar.

Vujuding sad emishdir senga, to‘g‘on,
Sen unda o‘ltirursen lol-u hayron.

O‘zingsen unda Ya’juj-u Ma’juj,
Damodam bir bo‘g‘ov qiynog‘iga duch.

Iskandar ham tariqat soliki bo‘lib, u obi hayot – ilohiy ma’rifatni izlaydi. Lekin jismi bu yo‘lda eng katta to‘siq – saddi Iskandar, nafs xohish-istaklari, sa’y-intilishlari esa Y.M.

N.ning “F.K.” devoniga kirgan g‘azallarning birida Y. obrazi ishtirokida quyidagi bayt uchraydi:

Umr yanglig‘ bevafodur xalq go‘yo, ey Xizr,
Chekti Zulqarnayn ya’juji vafo ollig‘a sad.

Zamona ahlining bevafoligidan, kishilarda vafo yo‘qligidan shikoyat ruhida bitilgan bu baytdagi Y.da yovuzlik, odamxo‘rlik ma’nosi yo‘q: shoir asosiy e’tiborni “sad” – devorga qaratadi, vafo oldiga to‘siq, g‘ov qo‘yilganini ta’kidlaydi.

“G‘.S.”dagi g‘azallarning birida ham shoir bu obrazga murojaat etadi, unga behisoblik, uzluksizlik ma’nolarini singdiradi hamda jiddiy ijtimoiy mazmunni o‘zida jamlagan “g‘am-u anduh ya’juji” birikmasini tuzadi:

G‘am-u anduh ya’jujig‘a har devor saddedur,
Fano mayxonasidek topmaduk dor ul-amon hargiz.

“S.I.” dostonining 68-bobida N. Y.M. qissasini yoritadi. Jumladan, bu qavmga shunday tavsif beradi:

Qad uzra yoyilmish parokanda soch,
Biri bir qarishdur, biri o‘n quloch...

Quloq iki yondin bo‘lub birga juft,
Najas tanlarin ko‘zdin aylab nuhuft.

Kelib g‘ul barmog‘i barmog‘lari,
Vale dev tirnog‘i tirnog‘lari.

Yomon yuzlari rangi behad sarig‘,
Qizil tuklar anda safodin arig‘.

Biaynih ko‘z andoqki, maymun ko‘zi,
Vale shum har qaysi mal’un ko‘zi.

Burun ichlarin til bila pok etib,
Topib lazzat, o‘zin tarabnok etib...

Og‘izdin to‘ng‘uzdek chiqib iki tish,
Vale yerni qozmoq alar birla ish.

Ne yerniki ul tishlar etti taboh,
Qiyomatqacha butmay andin giyoh...

Mumtoz adabiyotda Y.M. timsolidan salbiy narsalar, yovuz kuchlar, zolim, qonxo‘r, nopok va razil kishilarni sifatlash u-n foydalaniladi.

Ad.: *Қуръони Карим (А.Мансур тарж.). – Т., 1992; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва таъбироти ирфоний. – Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.); Қисаси Рабғузий. 2-китоб. – Т., 1990; Ислом энциклопедияси. – Т., 2004; Шайх Фаридуддин Аттор. Илоҳийнома (Ж.Камол тарж.). – Т., 2007; Очилов Э. Бир ҳовуч дур. – Т., 2011.*

E.O.

YAQINIY – XV asrda yashab ijod qilgan adib va shoir. Y. turkiy va forsiy tillarda ijod qilgan. Yusuf Amiriy, Ahmadiy an’analarining davom ettirib, turkiy tilda “O‘q va yoy” munozarasini yozgan. Nasriy yo‘lda bitilgan mazkur asar o‘zbek adabiyotida munozara janrining shakllanishida munosib hissa qo‘shgan. Y. haqida N.ning “M.L.” hamda “M.N.” asarlarida ayrim ma’lumotlar uchraydi. Xususan, N. “M.L.” asarida temuriy hukmdorlardan bo‘lmish Shohrux Sulton (1377–1447) davrida ilm-fan, madaniyat, adabiyot ravnaq topgani va turkigo‘y shoirlar ijod qilgani haqida yozib, Sakkokiy, Haydar Xorazmiy, Atoiy, Muqimiy, Amiriy, Gadoiylar qatorida Y.ni ham eslaydi. “M.N.”da Yaqiniy haqida nisbatan kengroq to‘xtalgan: *“Mavlono Yaqiniy – tundroq mashrabliq kishi erdi. Turkiy va forsiy she’r aytur erdi. Turkchasidin bu matla’in ko‘p mubohotlar bila o‘qur erdikim:*

Ohkim jonimg‘a yettim yori nodon ilgidin,
Dod-u faryod ul jafochi ofati jon ilgidin.

Ammo forsiysidin bu matla’si yomon voqe’ bo‘lmaydurkim:

Subheki, dam ba mehr nazad yak nafas tuyi,
Naxleki, bor naxo‘rad az u hech kas tuyi.

Tarj.: Bir nafas bo‘lsa ham quyoshga dam urmagan tong sensan, mevasidan hech kim yeya olmaydigan daraxt sensan). Oxir damida beadabona so‘zlaridin tavba qilib, ahli saloh tariyqi bila kechti. Umedkim, ma’fu bo‘lmish bo‘lgay. Qabri Darayi Dubarodarondadur.

Ad.: *Абдувоҳидова М. Ўзбек адабиётида мунозара. – Т., 1984; Муборак мактублар. Нашрга тайёрловчилар: Абдувоҳидова М., Мухторов Ҳ., Қосимхонов Б., Жўраев О. – Т., 1987; Rahmonov N. O‘zbek adabiyoti tarixi. (Eng qadimgi davrlardan XV asrning birinchi yarmigacha). – T., 2017.*

E.Q.

YA’QUB (a.s.) – ushbu payg‘ambarning nomi Qur’oni Karimda o‘nta suraning o‘n yetti oyatida zikr etilgan. To‘liq ism-sharifi Ya’qub Isroilulloh ibn Is’hoq Safiyulloh ibn Ibrohim Xalilullohdir. Ulamolar “Isroil” so‘zining ma’nosini turlicha talqin qilganlar. Jumladan, “Abdulloh”, “Ruhulloh” degan ma’nolarga ham ega. Ba’zi rivoyatlarga

ko‘ra, u Bayt ul-Muqaddasda xizmat qilib, chiroqlarini yoqib chiqar edi. Har kuni jami 600 ta chiroq yoqilardi. Shayton kelib chiroqlarni o‘chirib ketardi. Bir kuni panada turib, Shaytonni ushlab oladi va bo‘ynidan zanjir o‘tkazib, bir terakka bog‘lab qo‘yadi. “Isr” so‘zining ma’nosi “asir olish” degani. Boshqa bir qarashga ko‘ra, Isr – asir, banda, Il esa – Tangrining nomi, ya’ni Tangrining quli, bandasi degan ma’noni beradi.

N.ning “T.A.H.” xabar berishicha, Y. (a.s.) payg‘ambari mursaldir va ko‘p payg‘ambarlar uning naslidan chiqqan. Uni Isroil derlar. Otasi Is’hoq (a.s.) vafot etgan kechasi akasi Iysdan xavfi borligi u-n Y. (a.s.) Kan’ondin maxfiy tarzda Shom diyoriga chiqib ketadi. Buning sababi shundaki, bir kuni Is’hoq (a.s.)ning ko‘ngli kiyik go‘shtini tusab qoladi. Shunda onasining gapi b-n Y. (a.s.) otasining oldiga qo‘zi go‘shtini olib kirib ikrom qiladi. Ko‘zi ko‘r bo‘lgan ota Y. (a.s.) olib kirgan go‘shtni yegach, avlodlaridan ko‘p payg‘ambar chiqishini Allohdan so‘rab duo qiladi. Vaholanki, ota Iysni yaxshi ko‘rar edi. Iys ovga ketib, kiyik go‘shtini olib kelganda voqeadan xabar topadi va dili ranjib, akasiga nisbatan adovat paydo bo‘ladi.

N. yozishicha, bu safarda bir kecha Y. (a.s.) tush ko‘radi. Tangri taolo unga xitob qilib, Bayt ul-Muqaddas binosini qurishni buyuradi. Bundan ma’lum bo‘ladiki, Quddusdagi Bayt-ul Muqaddasni Y. (a.s.) qurgan va yahudiylarning ilk ibodatgohlarini ham shu payg‘ambar barpo etgan. U yerda Y. (a.s.)ning avlod-u zurriyotlari hokim bo‘lib, payg‘ambarlik va saltanat qurib, xalqni o‘z himoyatlarida shod va xursand asraganlar.

Y. (a.s.) uyg‘onib, xursand bo‘lib, otasining uning haqiga qilgan duosi ijobat bo‘lganini sezib, yo‘lga tushadi. Ko‘p mamlakatlarni kezib, Lubnon yashayotgan joy – Fidon degan yerga yetib borib u yerda maskan quradi. Y. (a.s.)ning suhbati Lubnonga yoqib qoladi. Y. (a.s.) uning Layyo ismli qizining qo‘lini so‘raydi. Biroq unga uylanishga mablag‘i bo‘lmagach, yetti yil Lubnonga qo‘y boqib berish sharti b-n qiziga uylanishini kelishib oladilar. Ammo muddati yetgach, nikoh kechasi Lubnon o‘zining Rohil ismli katta qizini unga nikohlab beradi. Y. (a.s.) buni bilgach, Lubnondan xafa bo‘ladi. Shunda Lubnon, “Katta opasi uyda qolib, kichigini nikoh qilish munosib emas, agar ko‘ngling Layyoga uylanishni istasa, yana yetti yil xizmat qilib ber, uni ham senga nikohlab beray” deydi. Y. (a.s.) uning aytganini qilib, yetti yildin so‘ng, Layyoni ham nikohlab oladi. Layyo o‘zining Faliha va Zalifa ismli ikki kanizagi b-n Y. (a.s.)ning uyiga kelin bo‘lib boradi. Ularning shariatida opa-singilni bir kishi nikoh qilib olishi mumkin edi. Muso (a.s.) zamonida bu ish bekor bo‘ldi. Ko‘pchilik tarix ahlining fikriga ko‘ra, Y. (a.s.)ning Layyodan oltita o‘g‘li bo‘lgan: Ro‘bil, Sham’un, Yahudo, Lodi, Zarbun, Yashxar. Rohildan Yusuf (a.s.) va Ibn Yaminlar. Kanizak Falihadan Don va Nafqol, kanizak Zulfadan Kov va Asra dunyoga kelishgan. Y. (a.s.)ning farzandlar ko‘p bo‘lgandan keyin, xizmatkorlari, chorvalari va boshqa mollari ko‘payib ketgan.

Y. (a.s.) keyinchalik g‘urbatdan vataniga qaytadi. Akasi Iys esa safar ixtiyor qilib, Rum sari yo‘lga tushadi. Iysning amakisi Ismoil (a.s.) qizidan beshta o‘g‘li bor erdi. Shulardan birining ismi Rum bo‘lgan va shu mamlakat uning nomi b-n atalgan. Rum qaysarlari uning naslidandir.

Ayrim tarixchilarning yozishicha, Iys olamdan o‘tgan kun Y. (a.s.) ham Kan’onda vafot etgan.

She’r:

Ya’qubni ham sipehri purfan,
Berdi necha kun jahonda maskan.

Paymonayi umri chunki to‘ldi,
Davron anga dog‘i uzr qo‘ldi.

Y. (a.s.) haqida gap borganda husnda tengsiz bo‘lgan o‘g‘li Yusuf (a.s.) qissasi, uning tush ko‘rishi, hasadchi o‘gay qardoshlari tomonidan karvonchilarga sotilishi, Misrdagi Zulayho b-n bo‘lgan mojarolar, zindonga tushishi, tush ta’bir qilishi va payg‘ambarona farosati tufayli Misrga hokim bo‘lishi yodga tushadi. Y. (a.s.) esa o‘g‘li Yusuf firoqida uyning bir burchagida tunlarni

yig‘lab o‘tkazadi va ko‘r bo‘lib qoladi. Bu uyni “bayt ul-ahzon” (G‘amlar uyi”) deb ataydilar. Yusuf (a.s.) podsho bo‘lgandan so‘ng otasiga o‘z ko‘ylagini tiriklik va sog‘inch nishonasi sifatida yuboradi, ko‘ylakni ko‘ziga surtgan otaning ko‘zlari ochiladi.

N. she’riyatida Y. (a.s.) voqeasiga ishora qilib, o‘z yoridan ayro tushgan va uni sog‘inib yashagan oshiq holatini tasvirlaydi. “Bayt ul-ahzon” vositasida esa g‘am, alam va hijron dardiga mubtalo bo‘lgan oshiq holati va uning mahzun maskani nazarda tutiladi.

Yo falak berdi yig‘i ko‘r aylagan Ya’qubning
Ko‘zlari ochilmoq uchun Mohi Kan’on mujdasin...

Yusufum hajrida Ya’qub g‘am ichra, mutribo,
O‘ylamenkim, xushlug‘um yo‘q
nag‘mayi Dovud ila.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Носируддин Бурҳониддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. 2 жилдлик, 1-жилд. – Т., 1990; Пайғамбарлар тарихи (Исломият тарихи). – Т., 2014; Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Ҳадис ва Ҳаёт. 20-жуз. Анбиёлар қиссаси.*

S.R.

YA’QUB MIRZO (Sulton Ya’qub, vafoti 1490-y.) – oqquyunlilar sulolasining vakili, Iroq va Ozarbayjonda 1478–1490-yy.da hukumronlik qilgan. Ma’rifatli hukmdorlardan bo‘lib, ilm-fan va san’at, madaniyat ahllariga homiylik ko‘rsatgan. Y.M. hukmronligi davrida Oqquyunlilar davlati b-n Husayn Boyqaro davlati o‘rtasidagi munosabatlar yaxshilangan va rivojlangan. Bunda N.ning ham hissasi katta bo‘lgan, zero, N.ning Y.M. bilan shaxsiy munosabatlari yaxshi edi. Sulton Husayn mirzo N.ni Astrabodga hokim etib tayinlaganda ham ana shuni hisobga olgan. Haqiqatdan ham N.ning bu yerga kelishi ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarning yaxshilanishiga xizmat qilgan. O‘z davlati b-n chegaradosh viloyatga N.ning hokim etib tayinlanganidan xursand bo‘lgan Y.M. darhol elchi va sovg‘a salomlar yuborib, do‘stlik aloqalarini mustahkamlagan. Bu haqda Mirxond “Ravzat us-safo” da ma’lumot bergan: “Astrobod viloyati ul hashamatli amirning izzatli masnadi bo‘lgan o‘sha kunlari oliy darajali podshoh, adolatpanoh Sulton Ya’qub mirzo bir necha bor so‘zamol va ishonchli odamlarni faxrli choponlar va mo‘l-ko‘l tansiq mollar, inoyatli va marhamat uyg‘otuvchi maktublar bilan yuborib, muhabbat va do‘stlikni kamoliga yetkazdi”.

N. va Y.M. o‘rtasida samimiy aloqalar mavjud bo‘lgani, ular bir-birlariga doimo sovg‘a-salomlar yuborib turganini N.ning “Xam.M.” da yozgan so‘zlari ham tasdiqlaydi. N. Abdurahmon Jomiy devonini Abdusamad degan kotibga ko‘chirtirgan. Kotib devonni chiroyli xat b-n ko‘chirgan bo‘lsa-da, lekin ko‘p xato qilgani sababli Abddurahmon Jomiy N.ning iltimosi b-n kotibning barcha xatolarini o‘z qo‘li b-n tuzatib chiqqan va qo‘lyozmaning so‘nggi varag‘iga shu voqeaga bag‘ishlangan bir qit’ani yozib qo‘ygan. Y.M. N.dan kitob so‘raganda N. xuddi shu kitobni unga yuborgan va yuqoridagi voqeani bayon qilgan. N.ning yozishicha, bu tuhfadan Y.M. behad mamnun bo‘lgan hamda N.ga minnatdorchilik bildirib maktub yuborgan. Y.M. faqat she’riyatni sevib qolmay o‘zi ham she’rlar yozgan. N. uni “M.N.” tazkirasining 7-majlisiga kiritgan. Garchi Y.M. zikri juda qisqa bo‘lsa-da, N.ning unga munosabatini va bahosini ko‘rsatishi b-n ahamiyatlidir. N. uning forsiy tildagi bir ruboiysini keltirgan. Ruboiy falsafiy mazmunda bo‘lib, unda olamning besabotligi haqida so‘z yuritiladi. Bu muallifning hayotga falsafiy qarashidan dalolat beradi.

Ad.: *Алишер Навоий “Мажолис ун-нафоис”. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Хондамир. Ҳабиб ус-сияр. – Т., 2011.*

Q.E.

YA’QUBXON OQQUYUNLI TURKMAN (to‘liq ismi: Ya’qub bin Amir Hasanbek bin Ali bin Qaro Usmon (vafoti – 1518) − davlat arbobi, shoir. “Tuhfayi Somiy”da ma’lumot berilishicha, uning ajdodlarini O‘g‘uzxonga nisbat beradilar. Eronga qo‘shin tortib kelganda, Diyorbakrda yashab qolganlar. Bu suloladan hukmdorlik taxtiga ilk bor Hasanbek chiqqan, keyin uning o‘g‘li Xalilbek, olti oydan so‘ng esa kichik ukasi Y.O.T. Diyorbakr hokimi bo‘lgan. Keyin Ozarbayjonga yuz burdi. Eronning qator shaharlarini egalladi va xonlik taxtiga muqim o‘tirdi. Iroq va Ozarbayjonda hukmronlik qilgan bu ma’rifatparvar shoh ilm-u adab ahliga homiylik qilib, o‘zi ham she’rlar yozgan. Faxriy Hirotiy u rahnamolik qilgan adabiy muhitga mansub 40 nafar shoir haqida ma’lumot beradi. Abdurahmon Jomiy haj safaridan qaytishda Tabrizda u b-n ko‘rishib, muloqotda bo‘lgan hamda “Salomon va Absol” dostonini unga bag‘ishlagan. N. uni she’riyat bilimdoni, iste’dodli shoir va ma’rifatparvar hukmdor sifatida e’tirof etgan. “M.N.” tazkirasida “Turkman salotinda aningdek pisandida zotlig‘ va hamda sifotlig‘ yigit oz bo‘lg‘ay. Darveshsifat va foniyvash erdi”, – deb yozadi.

N. boshqa shoirlar haqida fikr yuritganda ham ular b-n bog‘liq holda Y.O.T. nomini tez-tez tilga oladi. Jumladan, Kamoliddin Husayn Iroqqa borganida Y.O.T. uni hurmat-ehtirom b-n kutib olib, Biyobong degan har yili yuz ming oltinga yaqin daromad keltiradigan joyni unga suyurg‘ol qilib beradi. Lekin bu darveshtabiat inson uning bahridan o‘tib, Xurosonga qaytib keladi. Husayn Abivardiyning bir baytini tanqid qilishganida hakamlik qilish u-n Sulton Y.O.T.ga yuboradi. Qozi Isoni u shu “martabada ta’zim va tarbiyat qildikim, hech podshoh ahli aloqadin hech kishini oncha tarbiyat qilganini tarixlarda ko‘rulmaydur”. Yoki uning qoshida Shayx Najmdan “maxsusroq va noyibroq kishi yo‘q erdi”. Bu dalillar, bir tomondan, Sulton Y.O.T.ning ijod ahlini hamisha qo‘llab-quvvatlaganini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan o‘zi ham adabiyotni teran tushunganidan guvohlik beradi.

Boqiylikni jahonda kam ko‘rgayman,
Har shodligida ming bir g‘am ko‘rgayman.
Bu ko‘hna musofirxonaning har yog‘idan
Yo‘qlik dashtiga yo‘l ham ko‘rgayman.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; IX–XVII асыр туркмен эдебиятинин шахырлары. – Ашгабат, 1967; Ғаниева С. Навоий насри нафосати. – Т., 2009; Sirojiddinov Sh. Amir Alisher. – T., 2023.*

E.O., M.A.

YAHYO SEBAK (taxallusi; ismi: Mavlono Muhammad Fattohiy Nishopuriy) (XV asr oxiri, Nishopur – 1448, Hirot) **–** shoir, aruzshunos olim va xattot. Tuffohiy, Fattohiy, Xumoriy, Asroriy kabi taxalluslar b-n ijod qilgan. Yoshligi tug‘ilgan shahrida o‘tib, shu yerda tahsil olgan. O‘z davrining asosiy ilmlarini egallagan. Xususan, aruz, qofiya, badiiy san’atlar, xat san’atida benazir iste’dod sohibi bo‘lib, N., Darvesh Mansur Sabzavoriy kabi o‘z davrining yetuk namoyandalari aruz va bade’ ilmida uning shogirdlaridan edilar. Bunday oqil-u fozil kishi hukmdor e’tiborini tortishi tabiiy. Y.S. ham Hirotga da’vat qilinadi va Shohrux mirzo saroyi ilm-u adab ahli safidan joy oladi. So‘ng bir muddat Samarqandda bo‘lib, madrasada tahsil oladi. Mirzo Ulug‘bekning do‘st-u hamsuhbatiga aylanadi. U 7 yildan keyin “Husn va Dil” dostonini tugatgach, taxm. 1438-y.da Samarqandni tark etadi. Nishopurga borib, yana Hirotga qaytadi va umrining oxirigacha Hirotda yashaydi. Qabri Hirot xiyobonida.

Y.S. ijodiy faoliyatining ilk bosqichida Asroriy va Xumoriy taxalluslari b-n ijod qilib, g‘azallar devoni ham tartib bergan – unda asosan o‘tgan ustozlarining she’rlariga tazmin va tatabbu’ qilgan. Devondagi g‘azallar turli taomlardan bahs etib, Abuishoq At’imaning “Kanz ul-intiho” (“Ishtaha xazinasi”) devoniga o‘xshash bo‘lgan va “Xumoriy va Asroriy kitobi” nomi b-n mashhur bo‘lgan. Umrining o‘rtalarida Fattohiy taxallusi b-n yozgan g‘azal va qit’alari asosida 3

ming bayt hajmida yana bir devon tartib bergan. Jaloliddin Rumiyning “Masnaviyi ma’naviy”-si vaznida (ramali musaddasi mahzuf) “Ta’biri xob” (“Tush ta’biri”) nomli bir masnaviy ham yozgan. “Shabistoni xayol”, “Ravzayi bo‘ston”, “Xamriyot” (Mayga bag‘ishlangan she’rlar), matolar nomi va turi tasnif qilingan “Risolayi albisa” (“Liboslar haqida risola”), fozillar so‘zlari va go‘zal she’rlardan saylangan “Asrornoma” degan asarlari ham bo‘lgan.

N. uning shogirdi Darvesh Mansurdan aruz ilmi bo‘yicha tahsil olgani u-n ham o‘zini vosita b-n Y.S.ning shogirdiman deb lutf etgan.

“Mavlono Yahyo Sebak – Xuromon mulkining rangin fozili erdi, ko‘p ulum va fununda mohir erdi. Sanoye’ va aruz fanida barcha el ani musallam tutarlar erdi. Aning tab’i diqqatini har kishi bilay desa, “Shabistoni xayol” (“Xayol xilvatxonasi”) degan kitobini ko‘rsun”, – deb yozadi yana u hamda Fattohiy va Asroriy taxalluslari b-n yozgan g‘azallari matla’sidan bittadan misol keltiradi. Jumladan:

Ey, ki davri lola sog‘ar xoli az may mekuni,
Raft umr, in dog‘i hasratro davo kay mekuni.

Tarj.: Ey lolalar ochilganda may qadahini xoli qiluvchi kishi, umring o‘tyapti, uning hasratiga qachon davo qilasan?

Asroriy taxallusi b-n yozilgan quyidagi g‘azal matla’si esa Xoja Hofiz javobida:

Arrayi bargi kanab, ey bangiyon, z-on tez shud,
To burad bexi niholi aql-u iymoni shumo.

Tarj.: Ey bangilar, nasha barglarining uchi sizning aql-u iymoningiz ildizini qirqish uchun o‘tkirlashgandir.

“Mavlono darveshvash va qone’ kishi erdi. Go‘shaye ixtiyor qilg‘on jihatidin latoyifi tab’i ozroq shuhrat tutti”, – deb yakunlaydi fikrlarini u.

Davlatshoh Samarqandiy, Xondamir, Faxri Hirotiylar uning bir necha “Dahnoma”lari, “Dastur ul-ushshoq” (“Oshiqlarga qo‘llanma”) manzumasi, san’atlar haqidagi “Risolat fil-inshoot ul-masnu’ot”, qasidalar, g‘azal, ruboiy va qit’alar kitoblari mavjudligi haqida ma’lumot beradilar. Davlatshoh Samarqandiyning yozishicha: “Fozil va aksariy ilmlardan xabardor kishi erdi. Mag‘firatli xoqon Shohruh sulton zamonida fazli va iste’dodi bilan shuhrat qozondi. (U) xususan she’r va xattotlik ilmida g‘oyat mohir, sohibi ilm ekanidan...

Mavlono Yahyo (Sebak)ning she’r san’ati va (uning) badiiyligi xususida mubolag‘a borkim, u aslo san’atsiz suxanvorlik qilmas edi...”

“Shabistoni xayol” asarining ayrim nusxalari O‘zR FA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanadi (inv. № 3813) I, 252,90 (IV, 1642, 1660).

Y.S. ruboiylaridan namunalar E.Ochilov tomonidan tarjima qilingan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Гулшани адаб. Намунаи назм иборат аз панж жилд. Жилд 3. – Душанбе, 1976; Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар бўстони (“Тазкират уш-шуаро”дан). Аҳмедов Б. тарж. – Т., 1981; Ғаниева С. Яҳё Себак // Ўзбек тили ва адабиёти, 2005; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 3. – Душанбе, 2004.*

E.O.

YODGOR MUHAMMAD MIRZO (1450, Isfahon – 1470, Hirot) – temuriy shahzoda, Amir Temurning nabirasi Sulton Muhammad Mirzoning o‘g‘li. U otasi vafotidan keyin tug‘ilgan. Otasi 1450-y.da Abulqosim Bobur b-n hokimiyat u-n kurashib halok bo‘lgach, Y.M.M. Iroqda, turkman hukmdorlari saroyidan panoh topgan. Sulton Abusaid 1469-y.da Uzun Hasan b-n bo‘lgan urushda yengilib, o‘ldirilgandan so‘ng, Y.M.M. uzun Hasan yordamida Xurosonni egallash u-n kurash boshlaydi. Bu vaqtda Hirot taxtiga Husayn Boyqaro o‘tirgan edi. Y.M.M. u b-n Chinoron degan joyda jang qilib, mag‘lubiyatga uchragan. Ikkinchi marta Uzun Hasandan yor-

dam olib, qaytadan bostirib kelganda, Husayn Boyqaro dushman qo‘shinining son jihatdan ustunligini hisobga olib, jangga kirmaydi va Hirotdan chiqqanda, Y.M.M. ammasi Poyandasulton Begim yordamida Hirot taxtini egallagan (1470).

Lekin u hokimiyatni saqlab qololmagan, tez orada Xuroson ahlida unga qarshi norozilik paydo bo‘lgan, chunki Y.M.M.ga yordam bergan turkmanlar katta mavqega ega bo‘lib, xalqqa nisbatan zulm qila boshlagan. Voqealarni ziyraklik b-n kuzatib turgan Husayn Boyqaro payt poylab, to‘satdan hujum qilgan. N. mana shu tarixiy voqealarda faol qatnashgan, Chinoron jangida ishtirok etib, o‘zining oqilona maslahati b-n g‘alabaga hissa qo‘shgan. Tarixiy manbalarda N.ning Y.M.M.ni qo‘lga olishda shaxsiy jasorat ko‘rsatgani qayd etilgan. Sulton Husayn Boyqaro navkarlari Y.M.M. turgan qasrning atrofini o‘rab olganlar, lekin tepaga chiqishga hech kimning yuragi dov bermagan. Shunda N. Sultondan ruxsat olib, qilichini sug‘urib, unga hassa kabi suyangan holda birinchi bo‘lib zinadan ko‘tarilgan. Shundan so‘ng boshqalar ham yuqoriga chiqqanlar va Bog‘i Zog‘onda mast holda uxlab yotgan Y.M.M. asir olinadi. Sulton Husayn Boyqaro amirlari talabi b-n uni qatl ettirgan.

Zero, mumtoz muarrix Abdurazzoq Samarqandiyning “Matla’yi sa’dayn” asarida N.ning nomi ilk marta shu voqea munosabati b-n esga olingan. Xondamir ham N. ga bag‘ishlab bitgan “Makorim ul-axloq” asarida bu voqeaga alohida to‘xtalgan: “Tadbirli amir Alisher bu taklifni ma’qullamadi va dediki: “Eng yaxshisi, boqqa tunda kiraylik, chunki kunduzi bo‘lsa mirzo Yodgor Muhammadning odamlari bizning hujumimizdan xabardor bo‘lib kelib, tezlik bilan tayyorgarlik ko‘rishi va ishni boy berib qo‘yishimiz ehtimolidan uzoq emas. Dushman kechasi bizning harakatimizdan xabardor bo‘lganda ham, to‘plana olishi aqldan juda uzoqdir. Ikkinchidan, maqsadimiz yuzaga chiqmagan taqdirda, insonning ko‘z oldiga qorong‘ulik pardasi tutilgan bo‘lib, bir tomonga chekinishimiz mumkin bo‘ladi. Aksincha, kunduz kuni bu hol muyassar bo‘lmaydi. Sultoni sohibqiron bu taklifni qabul qilib, kechasi Bog‘i zog‘onga kirdi. Sof ko‘ngilli Amirning tadbirlari muvaffaqiyatli chiqib, “Xulosat ul-axbor”da yozilishicha “mirzo Yodgor Muhammad qo‘lga tushib oxiratga safar qildi”.

Bobur ham “Boburnoma”da ushbu voqea haqida gapirar ekan, Y.M.ni “betajriba o‘g‘lon bir yigit edi”, deb ta’rif bergan.

Y.M.M. nomi va u bilan bog‘liq voqealarga N. yana “S.S.” dostonining XI bobida to‘xtaladi. Jumladan, Bahromshohning turk xoqonini tor-mor qilishdagi harbiy taktikasi (Bahromshoh ko‘p ming sipohlik turk xoqonini g‘aflat paytida qo‘lga tushirib, o‘z taxtini qayta egallaydi.)ni N. maslahati b-n Sulton Husayn Boyqaro Y.M.M.ga qarshi qo‘llagan. N. shu harbiy usulga “S.S.”da quyidagicha ishora qilgan:

Kishvarin oldi, o‘lg‘och ul pinhon,
Necha yuz ming cherik bila xoqon.

Necha yuz kimsa birla gohi sitez,
Bir shabexun chu ayladi angez.

U‘yla xoqonni tor-u mor etti
Kim, sipehr olidin firor etti.

Asare qolmadi bu to‘fondin,
Ne sipohidin-u ne xoqondin.

Bo‘lmadi buyla fath damsozi
G‘ayri Bahrom-u Xusravi G‘oziy.

Topti chun xasmidin bu nav’ kushod,
Oncha olam eliga ayladi dod.

Adib “T.M.A.”ning “To‘rtinchi tabaqa sosoniylardur” nomli fasli Bahrom Binni Yazdijirdga bag‘ishlangan qismida Y.M.M. b-n bog‘liq yuqorida keltirilgan hodisalarga qisqacha to‘xtalib, keyinchalik Husayn Boyqaro haqida yozmoqchi bo‘lgan asarida bu voqeaga yana bir bor qaytishini yozadi.

Xondamirning “Makorim ul-axloq” asarida ham Y.M.M. b-n bog‘liq 2 ta hikoyat keltiriladi. Ularning har ikkalasi ham N. b-n bog‘liq.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи мулуки ажам. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Абдураззоқ Самарқандий. Матлаъ ас-саъдайин ва мажма ал-баҳрайн. 2-жилд. – Т., 2008; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985; Бобур. “Бобурнома”. – Т., 2002; Гиёсиддин Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Т., 2015.*

Q.E., E.O.

YOLG‘ON – N. asarlarida ikki xil – axloqiy va estetik kategoriya sifatida talqin etiluvchi so‘z, termin. Adib Y.ning izohiga o‘zining, xususan, “H.A.”, “M.Q.” asarlarida ancha keng to‘xtalgan, axloqiy kategoriya sifatida N. Y.ni rostga, to‘g‘rilikka, halollikka zid qo‘yadi, uni keskin qoralaydi. “M.Q.”da bu haqda quyidagi ta’rif va jumlalarni o‘qiymiz:

“Kimki so‘zi yolg‘on, yolg‘oni zohir
bo‘lg‘och, uyolg‘on”.
“So‘zning asnofi bag‘oyat cho‘qtur,
yolg‘onidin yamonroq sifi yo‘qtur”.

N. yolg‘onchi odamni jamiyatdagi eng yaramas, qabih, iflos odam, deb hisoblaydi: “Ulki yolg‘on bila sarfi avqot etgay, anga bu yamon kelmay yana mubohot etgay. Agar mustame’ni g‘ofil topqay, yolg‘onni ching‘a o‘tkarsa, maqsudin hosil topqay. Zihi Tangriga yamon banda, ne Tangridin, ne xalqdin sharmanda. Mundoq nahsning chun erur yuzi yamonliq sari, bu nuhusat shior qutluq uydin tashqari. Bayt:

Ul kishini qutluq evdin tashqari surmak kerak,
Qutluq ev dunyo durur, ya’niki o‘lturmak kerak”.

N. Y. talqiniga juda katta ijtimoiy ma’no berib, uni o‘z davri, o‘z davridagi ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy hayot b-n bog‘lar ekan, bu illatning tag zamini hayotda, ijtimoiy tuzumda ekanini, hammayoq yolg‘onchilar b-n to‘la ekanini, hatto yolg‘on, ikkiyuzlamachilik hukmron ekanini, undan butunlay qutulish mumkin emasligini ko‘radi. Ahvol shunday ekan, chinga nisbatan yolg‘on ustun ekan, shoir o‘z zamondoshlarini yolg‘onni loaqal kamroq ishlatishlarini orzu qiladi:

Har kishi yolg‘onni desa, lek kam,
Bo‘lg‘ay edi kosh bu davronda ham!

“Yolg‘onchi har necha so‘zida fasihroq, so‘zi qabihroq”, – degan shoir yolg‘onni insoniyat, jamiyat hayotidagi eng katta nuqson, balo deb tushunadi va qayta-qayta unga qarshi kurashish lozimligini uqtiradi. N. oxir-oqibatda yolg‘onning va yolg‘onchining beburd bo‘lib, sharmandayi sharmisor bo‘lishini, haqiqat tantana qilishini, yolg‘onchilik kishilar hayotidagi eng yomon odat (“oyin”) ekanini ta’kidlab “M.Q.”da yozadi: “Har kimki, so‘zi chin bo‘lmag‘ay, rostlar ko‘ngliga ul so‘z qabul oyin bo‘lmag‘ay. Yolg‘onchi so‘zin bir-ikki qatla o‘tkargay, o‘zga netgay? Yolg‘oni zohir bo‘lg‘ondin so‘ngra anga rasvolig‘ yetgay va so‘zi e’tibori el ko‘nglidin ketgay”.

Lekin N. yolg‘onni ikki turga ajratar ekan, hayotdagi odamlarning o‘zaro muomalasidagi yolg‘onni qattiq qoralagani holda adabiy asarlardagi, she’riyatdagi yolg‘onni yoqlaydi. Shoirning fikricha, Y. garchi hayotda nomaqbul narsa bo‘lsa ham, ammo adabiyotda, xususan, she’rda uning o‘z o‘rni, ahamiyat bor bo‘lib, buni har qanday tushungan odam tan olmay iloji yo‘q. Bu fikr birinchi marta N. tomonidan 1465–1466-yy.da ustozi Sayyid Hasan Ardasherga yozgan she’riy maktubida:

So‘z ichraki yolg‘on erur nopisand, –
Chu nazm ettilar, qildi dono pisand, –

shaklida ifodalangan edi. Bu masalaga N. keyinchalik “H.A.”da to‘xtalib, odatda shoirlarning o‘z asarlarida haqiqat, deb yozganlari

boshdan-oxir yolg‘on (“Harzav-u hazyon”) bo‘lib, ajablanadigan joyi shundaki, ularning eng yaxshilari – eng yolg‘onlaridir, – degan edi:

Chin demagi harzav-u hazyon bori,
Turfa bukim, yaxshi – yolg‘on bori.

Bu fikr “M.Q.”da ham, deyarli, takrorlangan (“Yolg‘on so‘z juz nazmda nopisand va aning qoyili noxiradmand”). Bu masalada N. arablar orasida keng tarqalgan “She’rning eng yaxshisi eng yolg‘oni” maqolidagi fikrni rivojlantirgan bo‘lib, bu o‘rinda “yolg‘on” badiiy to‘qimani, she’riy mubolag‘ani, fantastikani, yorqin istiora va tashbehni anglatadi. She’riyatning qasida, g‘azal, doston, vasf va boshqa, deyarli, hamma turlariga oid badiiy tasvirda shoir ijodiy tafakkuri, xayolga keng erk berishi, mubolag‘alarning turli xillarini qo‘llashi, xayolan bor narsani bo‘rttirishi yoki g‘oyat kichraytirishi, shu yo‘l b-n biron ta’sirili obraz yaratishga intilishi tabiiy. Shoir she’rida tasvirlangan kishilar (m-n, oshiq-ma’shuqlar) obrazi aynan jonli hayotdagidek, oddiy bo‘lishi kitobxonda hayajon uyg‘otmaydi. Shu ma’noda shoirlar oddiy narsalarni, hatto sodda kishilarni ham o‘z estetik idealidan kelib chiqqan holda yanada xunuklashtirib tasvirlaganlar. Bu – badiiy asar, badiiy tasvir qonuniyati. Binobarin, Y. estetik kategoriya sifatida talqin etilar ekan, shoir unga ijobiy ma’no berib, she’riyatning, badiiyatning muhim komponenti sifatida qaraydi va baholaydi. She’riyatdagi yolg‘onga shunday qarash Nizomiy Ganjaviy, Muhammad Fuzuliy adabiyot olimlaridan Abdulqodir Jurjoniy, Kaykovus ibn Qobus, Nizomiy Aruzi Samarqandiy, Xatib Tabriziy va boshqalarga ham xos. M-n, Kaykovus “Qobusnoma” asarida o‘g‘liga she’ri ta’sirchan bo‘lishi u-n “mumkin qadar istioralarni“ ishlatishni, madhda ham istioralarni qo‘llashni maslahat beradi. Lekin Kaykovus madh, mubolag‘ada me’yor bo‘lishini uqtirib: “Agar she’rda yolg‘on va mubolag‘ani yaxshi desalar ham, yolg‘onni haddan oshirib” yubormaslikni maslahat beradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Бертельс Е.Э. Избранные труды. Низами ва Фузули. – М., 1962; Ҳайитметов А. Шарқ адабиётининг ижодий методи тарихидан, – Т., 1970; Қобуснома. – Т., 1968.*

Ab.H., S.R., M.A.

YORIY (XV asr, Sheroz) – shoir, naqqosh. N. “M.N.”ning oltinchi majlisida Y. haqida yozadi: asli sherozlik bu shoir Xurosonga keladi. Naqqoshlik san’atini endi egallay boshlagani u-n N. uni oltin b-n naqshlash ishi ustalariga topshiradi. Oz fursatda yaxshi naqqosh bo‘lib yetishadi. *“Lekin*, – deb qayd qiladi N. – *andoq ma’lum bo‘ldikim, g‘arazi naqqoshlik o‘rganmakdan naqshbozlik (hiylagarlik) ekan”.* Keyinchalik Y. ajab hunarlar ko‘rsatadiki, N. ular haqida yozishni istamaydi. “M.N.” tarjimoni Faxriy Hirotiy qo‘shimcha ma’lumotiga ko‘ra, N. Y.ga ko‘p shafqatlar ko‘rsatgan edi. Lekin u podshoh va amirlarning muhriga taqlid qilib, muhrlar yasab, yaramas xayollar b-n nishon, farmonlar yozishdek g‘ayriqonuniy ishlarga qo‘l urgan. Oxiri Y.ning bu ishlaridan voqif bo‘ladilar, lekin ayblarini kechiradilar. “Ammo, – deb yozadi Faxriy, – u kabi muzahhib (zarhal qiluvchi usta) va muharrir (yozuvchi) hech vaqt bo‘lmagan”. Faxriy ham N. kabi Y. she’riyatidan forsiyda bir matla’ keltiradi.

“Shunday ishlar qildiki, ularning tarixi uzun” deydi N. va uning qalamiga mansub bir matla’ni ijodidan namuna sifatida keltiradi:

Zi ashki didaki, dil pur zi durri maknun ast,
Biyoki, bahri nisori tu ganji Qorun ast.

Tarj.: Ko‘z yoshlardan dil noyob durlarga to‘ldi, kelgil, Qorun xazinasi sen uchun nisordir.

“M.N.”ning ikkinchi tarjimoni Qazviniy Y. haqidagi ma’lumotlarni tarjima qilar ekan, “oz fursatda obdon naqqosh bo‘ldi” degan jumlani “qisqa vaqtda ikkinchi Moniy bo‘ldi”, – deb tarjima qiladi. Bundan Y.ning naqqoshlikdagi

mahorati chindan ham yuksak bo‘lgani anglashiladi. Uning ayblarini ma’zur tutilgani ham Y.ning ana shunday mahorat egasi bo‘lgani b-n ham izohlanadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ҳайитметов А. Алишер Навоийнинг адабий-танқидий қарашлари, – Т., 1959; Ойбек. Навоийнинг “Мажолис ун-нафоис” асари ҳақида. 9-жилд. – Т., 1974; Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи, 1-китоб, 3-нашри. – Т., 1976.*

S.G‘., E.O.

YOSUMAN – N. ijodida ko‘p uchraydigan badiiy obraz.

Dahr zoli nechakim Farhodkushdur, turfa ko‘r
Kim, xatodur tutsa gar andin Parviz ko‘z.

Maz.: Dunyo Yosumani har qancha Farhodlarni terib o‘ldirmasin, qizig‘i shundaki, Parvizga o‘xshaganlarning undan umid qilishi ayni xatodir.

Haqiqatan ham, dunyo otliq Y. harchand Farhoddek asl odamlarni juvonmarg qiluvchi bo‘lmasin, Xusrav kabi nokaslar ham undan vafo umid qilishi xatodir, chunki hayot tegirmoni navbati b-n yaxshini ham, yomonni ham o‘z komiga tortadi.

N. olam va odam mohiyati haqida ko‘p bosh qotirgan, tiriklik va o‘lim sabablari ustida muttasil mulohaza yuritgan, inson hayotining maqsadi, ma’no-mazmuni xususida bir umr o‘ylagan, tabiat va jamiyat sirlarini o‘zicha yechishga intilgan. Uning chuqur bilim, keng dunyoqarash, katta hayotiy tajriba, olimona teran tafakkur va shoirona o‘tkir nigoh b-n uyg‘unlashgan fikr-mulohazalari, falsafiy xulosalari hikmat kabi jaranglashi shundan. M-n, mutafakkir shoir tiriklik va o‘lim to‘g‘risidagi ko‘p yillik mushohadalarining natijasi sifatida ajal dastidan hech kim qochib qutulolmaydi – shoh ham, gado ham, qari ham, yosh ham, yaxshi ham, yomon ham bu bevafo dunyoni bir kuni tark etishi muqarrar, binobarin, dunyo otliq nozanin b-n mangu birga bo‘lishga umid qilish xato ekani haqidagi azaliy va abadiy haqiqatni yangi obrazlar va ohorli fikrlar asosida o‘ziga xos teran va go‘zal shaklda ifodalaydi.

Bu yerda, avvalo, dahr zoli: dahr − dunyo, zol − qariya (chol yoki kampir) degani. Tasavvuf she’riyatida dunyo ko‘pincha noz-u ishva b-n oshiqlarini yo‘ldan uradigan, lekin hech kimga vafo qilmaydigan bevafo ma’shuqaga, paranjichachvon ichida go‘yoki sarvqomat va go‘zal ko‘rinadigan, aslida esa qaddi bukchaygan, tishlari to‘kilgan qari kampirga, talabgorlarini sehr-u jodu, makr-u hiyla b-n o‘z tuzog‘iga tushirib, xohlagan ko‘yiga soladigan jodugar, alvasti, yosuman, ajuzaga o‘xshatiladi. Shundan dahr (dunyo) zol (qariya: chol yoki kampir), dunyo arusi (kelini) degan obraz Sharq adabiyotida keng tarqalgan va u N. ijodida ham ko‘p uchraydi. Mumtoz she’riyatda dunyo ming oshiqli ma’shuqa sifatida ham talqin qilinadi.

Bu yerda “F.Sh.” dostonidagi Farhodning Xusrav yollagan Y. makri b-n o‘ldirilganiga ishora qilinyapti. Holbuki, bilamizki, Xusravning quvonchi ham uzoqqa bormaydi – Shirinning vasliga yetolmay, o‘g‘li Sheruya tomonidan o‘ldiriladi. N. fikricha, ishq – ko‘ngil ishi, unda kuch b-n hech narsaga erishib bo‘lmaydi. Ma’shuqa tomonidan moyillik bo‘lmasa, oshiqning barcha sa’y-u harakatlari behuda. O‘z navbatida, padarkush Sheruya ham olti oy o‘tmay, ajal sharbatini totadi.

N. ko‘plab g‘azallarida Y. obraziga qayta-qayta murojaat qilib, bu boradagi fikrlarini yanada rivojlantiradi, chuqurlashtiradi va boyitadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Очилов Э. Тафаккур ва талқин // Бир ҳовуч дур. – Т., 2011.*

E.O., M.M.

YOFAS (a.s.) – Nuh (a.s.)ning uchinchi o‘g‘li. N. uning kunyasini Abut-turk (Turkiylar otasi) deb ataydi, boshqa manbaga ko‘ra “Qamug‘ (barcha) turklar Yofas urug‘i turur”.

N. “T.A.H.” asarida Y.(a.s.)ni mursal payg‘ambar deydi. Uning Turk, Xazar, Siqlob, Rus, Misk, Chin, Kamori degan yettita o‘g‘li bo‘lgan. Ba’zilar Torax nomli 8-o‘g‘li ham bo‘lgan deyishgan. Iskandar Zulqarnayn Y.ning to‘rtinchi o‘g‘li bo‘lib, Rus naslidandir”.

Nuh (a.s.) Turon zaminni Y. (a.s.)ga va Eronni Somga va Hindistonni Homga bergan. Mazkur mamlakatlar aholisi ushbu uch kishining naslidan tarqalgani uchun Y. (a.s.)ni Abut-Turk, Somni Abul-Ajam va Homni Abul-Hind, deganlar.

N. “M.L.” asarida ham turkiy, forsiy va hind tillarining Nuh payg‘ambarning uch o‘g‘lidan tarqalgani va bu tillarning o‘ziga xosligidan bahs yuritgan. Y. (a.s.) nubuvvat (payg‘ambarlik) toji b-n sarafroz bo‘lib, qardoshlaridan mumtoz bo‘lgan.

Rivoyatlarga ko‘ra, Nuh to‘fonidan keyin 80 kishi yerga eson-omon tushadi Ular tushgan joyni “Qaryat us-samoniyna” (Saksonlar qishlog‘i) deyishadi. Biroq dengiz kasalligi tufayli ulardan 7 kishigina tirik qoladi. Bular – Nuh, uning uchta o‘g‘li va uchta kelini. Shu jihatdan Nuhni Odami soniy, ya’ni Ikkinchi Odam deyishadi. Y. (a.s.)ning qarindoshlaridan sarafroz bo‘lganining yana bir sababi otasining duosini olganidir. Chunki rivoyatga ko‘ra uxlab qolgan Nuh (a.s.)ning usti ochilib qolganida, o‘g‘li Hom avrat andomini ko‘rib kuladi, Som esa bu qilig‘i u-n Homni urushib ketadi, Y. hech narsa demasdan, kelib o‘z libosi b-n otasini ustini yopib qo‘yadi.

Shuningdek, dunyodagi uchta asosiy tillar guruhi, ya’ni Y. (a.s.) tillar guruhi, Somiy tillari guruhi va Homiy tillari guruhi hamda uchta irqning asosi (yevropoid, mongoloid va negroid) ham ayni Nuh (a.s.)ning uchta o‘g‘liga borib taqaladi.

N. davom etib yozadi: Chun Y. (a.s.) Xito mulkida mutamakkin bo‘ldi, bu o‘g‘lonlarig‘a har yerniki berdi, ul yerni ul o‘g‘li oti bila atadilar.

Chiqarg‘a bu vayronadin chora yo‘qtur,
Gar Odam va gar Nuh-u, gar Som-u Yofas.

N. soqiynomalaridan birida Husayn Boyqaroni madh etadi. Turklar otasi Y. (a.s.) ning ham uning ruhidan faxrlanishini ta’kidlab o‘tgan.

Kim ayo to‘rt ulusqa voris,
Faxr etib zotinga ruhi Yofas.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Носируддин Бурҳониддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. – Т., 1991; Пайғамбарлар тарихи (Исломият тарихи). – Т., 2014.*

S.R.

YOQUBOV Homil Islomovich (1907–1998, Toshkent) – o‘zbek adabiyotshunosi va adabiy tanqidchisi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi (1968). F.f. d-ri, prof. Abu Rayhon Beruniy nomidagi O‘zbekiston davlat mukofotining sovrindori (1970), “Hamid Olimjonning ijodiy yo‘li” (1936) “Zahiriddin Muhammad Bobur” (1940), “Abdulla Qahhor novellalari” (1946), “G‘afur G‘ulom” (1955), “Oybek” (1959), “Adibning mahorati” (1966) singari tadqiqotlar muallifi.

Y.H.I. N. ijodiy merosini o‘rganish b-n ham shug‘ullangan. U “Alisher Navoiyning “Xamsa”si”, “O‘zbek adabiyotining faxri”, “Navoiyning “Sab’ai Sayyor” dostoni”, “Sab’ai Sayyor”da shahar qatlamlarining obrazi” singari maqolalar hamda “Cho‘lpon va Navoiy” risolasini yozgan. Yuqorida tilga olingan maqolalarida u N. ijodi-

ning o‘zbek adabiyotidagi o‘rni va ahamiyati, “X.” va uning tarkibidagi “S.S.” dostoni haqida so‘z yuritgan, ularning bir qator xususiyatlarini yoritgan. “Cho‘lpon va Navoiy” risolasida Cho‘lpon she’riyatida N. an’analarining davom ettirilishi, Cho‘lponning N. va uning ijodiga munosabati masalalari ko‘rib chiqilgan. Muallif Cho‘lponning 1924-y.da e’lon qilingan “Besh yuz yil” maqolasida N. ijodining o‘zbek adabiyotidagi o‘rni to‘g‘ri baholanganini ta’kidlagan.

Y.H.I ushbu risolada N. va Cho‘lpon ijodidagi g‘oyaviy-badiiy mushtaraklikni ko‘rsatadi. Bunda u, eng avvalo, har ikki shoir she’riyatida insonparvarlik, adolat g‘oyalarining oldinga surilishi, ulardagi xalqparvarlik, o‘z xalqi va ona tiliga mehr, xususan, Cho‘lpon she’rlarida mustamlakachilikka qarshi norozilik tuyg‘ularining aks etishini yoritib beradi. Bundan tashqari, muallif har ikki shoir asarlaridagi ishq talqini haqida ham so‘z yuritgan va Cho‘lponning “Qalandar ishqi” she’ri misolida bu talqinning N. she’riyatidagi ishq talqini b-n yaqinligini ko‘rsatishga harakat qilgan.

Ad.: *ЎзМЭ. 3 жилд. – Т., 2002; Ёқубов Ҳ. Чўлпон ва Навоий. – Т., 1997; Ёқубов Ҳ. Адибнинг маҳорати. – Т., 1966.*

Q.E.

YOQUT (Yoqut al-Musta’simiy) – arablar orasida va islom olamida shuhrat topgan kotib (t.y.n., 1268-y.da vafot etgan). U Bag‘dodda abbosiy xalifa Musta’sim hukmronligi davrida yashagan. “Qur’on”ni ko‘chirishda yagona hisoblangan. Sharq adabiyotida talmeh san’ati vositasida uning ulug‘ nomi va xattotlik san’atiga ishora qilib yozilgan baytlar uchraydi.

N. asarlarida Y.ning nomi tilga olinmagan, ammo N.ga bag‘ishlab yozilgan Xondamirning “Makorim ul-axloq” asarida ulug‘ amir kutubxonasida Y. ko‘chirgan “Qur’oni Karim” nusxasi borligi va uning yo‘qolgan varaqlarini tiklash bilan bog‘liq voqea bayon qilingan hikoyat keltirilgan: “Hikoyat. Bir vaqtlar oliy hazrat Amirning kutubxonasida Xoja Yoqut degan kotib xati bilan ko‘chirilgan va bir necha sahifasi yo‘qolgan Qur’on bor edi. Ul hazratning muborak xotiri o‘sha nafis tuhfani takomillashtirishni istab, tushib qolgaan sahifalarini yozib chiqishni Xoja Hofiz Muhammad xuffozga topshirdi. Xoja Hofiz Muhammad bir necha kun mobaynida qanday yo‘l bilan ortiq-kamlik qilmaydigan, sahifasi sahifasiga to‘g‘ri keladigan qilib qay yo‘sin bilan yozish chorasini axtardi. Shu payt ul hazratning qo‘liga mavlono Shams Ma’ruf qalamiga mansub Qur’on nusxasi tushdi. Uning xati va ko‘rinishini sahifalari yo‘qolgan o‘sha Qur’onga yaqin ko‘rib, “tushib qolgan sahifalarini shundan ko‘rsangiz, ehtimol, mos tushar”, deb Xoja Hofiz Muhammadga yubordi. Ittifoqo, mavlono Shams Ma’ruf buni ilgari o‘sha Xoja Yoqut Qur’onidan betma-bet, yo‘lma-yo‘l, bironta harfini o‘zgartirmasdan ko‘chirgan ekan. Shuning b-n bu sahifalarni ko‘chirish oson bo‘ldi.

Ad.: *Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Т., 2015; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1986; Ражабова Б. Унсия (Буюк мутафаккир Алишер Навоийнинг шахсий кутубхонаси ҳақида). “Ҳуррият” газетаси. 2022 йил. 14 май. №18.*

B.R.

“YOQUTNING HUSNIXAT JIHATI...” – “H.A.” dostonining qalam, xat va uning jamiyatdagi o‘rni, ahamiyatiga bag‘ishlangan o‘n ikkinchi maqolatga badiiy illyustratsiya sifatida maqolat oxirida keltirilgan hikoyaning boshlanishi. Hikoya abbosiylar davrida Bag‘dodda yashab, 1268 (hijriy 667) y.da vafot etgan, “Qur’on”ni husnixat b-n ko‘chirishda shuhrat topgan va katta obro‘ orttirgan mashhur xattot Yoqut to‘g‘risida. Yoqut “Qur’on” xatini o‘z husni xati b-n yuksak darajaga ko‘targan bo‘lib, bu haqda ko‘pgina rivoyatlar mavjud. Mazkur hikoyada ulug‘ musavvirlardan Suhravardiy bir anjumanda xalifa Musta’sim bilan

yonma-yon suhbatlashib o‘ltirar ekan, ko‘zi odamlar orasida o‘ltirgan Yoqutga tushadi, hayajonlanib o‘rnidan turib ketadi. Suhravardiy xalifaga bunday tengi yo‘q kotib b-n faxrlanishi kerakligini uqtiradi. Bundan ta’sirlangan xalifa esa Yoqutni o‘z oldiga chaqirib, yonidan joy ko‘rsatishga majbur bo‘ladi.

Oddiy kasb egasi Yoqut o‘z xati b-n shunday martabaga erishganini N. zavq-u shavq ila hikoya qiladi. Hikoyada husni xat b-n bog‘liq chinakam san’atni, san’atkor mehnatini ulug‘lash g‘oyasi kuylangan.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011.*

Ab.H.

YUDAXIN Konstantin Kuzmich (1890, Orsk – 1975, Frunze), turkiyshunos olim, f.f. d-ri, prof. (1949), O‘zR FAning muxbir a’zosi (1952), Qirg‘iziston FA akademigi. U “Qisqacha o‘zbekcha-ruscha lug‘at”ning muallifi. Qirg‘izcha-ruscha lug‘at u-n Davlat mukofoti sovrindori (1967), Xalqaro ural-oltoy ilmiy jamiyatining faxriy a’zosi bo‘lgan (1961). Olim 1929-y.da birinchi bo‘lib N. asarlari tilining unlilar tarkibini tekshirgan. U Umarxon Amiriyning quyidagi tuyug‘idagi:

Sham’ yanglig‘ yonadur boshimdin ***o‘t,***
Ko‘z yoshimdin yer yuzida undi ***o‘t,***
Qon yoshim qildi yo‘lungni lolazor,
Muncha ta’sir ayladim qonimdin ***o‘t****.*

“O‘t” so‘zlari talaffuzda bir-biridan farqlanmagan, agar farq qilinganda, unda tuyuq yaratib bo‘lmas edi, degan xulosaga keladi. Shu mulohazalariga asoslanib olim eski o‘zbek tilida oltita unli bor va N. davri tili hozirgi Farg‘ona shevalariga yaqin turishini dalillaydi.

Ad.: *Юдахин К.К. Чиғатой тилининг товушлари таркиби масаласига доир материаллар. – Культура и писменность Востока. №4. “Баку, 1929.*

S.O‘.

YUGNAKIY ADIB AHMAD (XII asr oxiri, Yugnak qishlog‘i – XIII asr 1-yarmi) − turkiy adabiyotning zabardast namoyandasi, mutafakkir. Tarjimayi holi haqida, deyarli, ma’lumot yo‘q. “Hibat ul-haqoyiq” (“Haqiqatlar tuhfasi”) nomli asari bizgacha yetib kelgan. Uning oxirida Y.A.A. ismi tilga olinadi. Asar nusxalaridan biriga temuriy amaldorlardan Arslonxoja Tarxon tomonidan ilova qilingan 10 baytlik masnaviyda Y.A.A. haqida ba’zi ma’lumotlar mavjud. Undan ma’lum bo‘lishicha, Y.A.A. Yugnak degan so‘lim va bahavo joyda tug‘ilgan. Otasining oti Mahmud Yugnakiy bo‘lgan. Kitobi adabdan iborat bo‘lib, nomi − “Hibat ul-haqoyiq”. Koshg‘ariy tilda yozilgan bu kitobni shoir nuktadonlik b-n nazm rishtasiga tergan. “Qutadg‘u bilig”dan bir ikki asr keyin yaratilgan bu asar o‘zbek mumtoz adabiyotining noyob durdonasi hisoblanadi. N. “N.M.” tazkirasida Y.A.A.ga alohida o‘rin ajratib, ham shaxsi, ham ijodi xususida yuksak fikrlarni bildirishi uning ham zabardast so‘z ustasi, ham mashhur tasavvuf namoyandasi bo‘lganligidan dalolat beradi.

Y.A.A. tug‘ilgan joy olimlar o‘rtasida ko‘p tortishuvlarga sabab bo‘lgan. Samarqand, Farg‘ona va Turkistonda Yugnak joy borligi aytilsa-da, ko‘pchilik uni Samarqand atrofida deyishga moyil. Chunonchi, XII asrda yashagan mashhur muarrix Abdulkarim as-Sam’oniy “Al-Ansob” (“Nasabnoma”) kitobida yozadi: “Bu nisba (taxallus) “Yug‘anak”dan va bu (joy) Samarqand qishloqlaridan. Bu nisba bilan Abuhomid Ahmad ibn Abu Ahmad al-Yug‘anakiy mashhurdirlar”.

Y.A.A. tug‘ma ko‘r bo‘lgan, lekin N. ta’biri b-n aytganda, nihoyatda ziyrak va zakiyligi b-n ajralib turgan: “Haq subhonahu va taolo agarchi zohir ko‘zin yopuq yaratqandur, ammo ko‘ngli ko‘zin bag‘oyat yoruq qilg‘ondur... Va aning tili turk alfozi bila mavoizu- nasoyihqa go‘yo ermish. Xeyli elning muqtadosi ermish. Balki aksar turk ulusida hikmat-u nuktalari shoye’dur. Nasm tariqi bila aytur ermish, aning favoididindur.

Ulug‘lar ne bersa, emasman dema,
Ilik sun, og‘iz ur, emasang ema!

Va ham aningdurkim:

So‘ngakka ilikdur, eranga bilik,
Biliksiz eran − ul so‘ngaksiz ilik”.

Shoir “Hibat ul-haqoyiq”ni tugatib, uni hukmdor Dod Sipohsolorbekka taqdim etadi. Mashhur sharqshunos olim Y.E.Bertels bu asar qadimga o‘zbek adabiy tilidan mumtoz o‘zbek adabiy tiliga o‘tishda bir ko‘prik bo‘lganini aytadi. Asar tilida qadimiy turkiy so‘zlardan ko‘ra, arab va fors so‘zlarining ko‘p qo‘llanganini shundan dalolat beradi. Y.A.A. bu asari b-n o‘zbek adabiy tili va adabiyoti rivojiga katta hissa qo‘shdi.

“Hibat ul-haqoyiq” 14 bob, 512 misradan iborat. Dostonning birinchi bobi Allohga hamd, ikkinchi bobi Muhammad (s.a.v.) na’ti va choryorlar ta’rifiga, uchinchi bobi Dod Sipohsolorbek madhiga bag‘ishlangan. To‘rtinchi bobda kitobning yozilish sabablari bayon qilingan. To‘rt muqaddima bobdan so‘ng asosiy qismga o‘tiladi. Beshinchi bob − ma’rifatning foydasi-yu jaholatning zarari, oltinchi bob − til odobi, yettinchi bob − dunyoning o‘tkinchiligi, sakkizinchi bob − saxiylik va baxillik, to‘qqizinchi va o‘ninchi boblar turli masalarga bag‘ishlangan bo‘lib, o‘n birinchi bob − kitobning xotimasi (Asarning 1480 yili Istanbulda Abdurazzoq Baxshi tomonidan ko‘chirilgan nusxada 11 bob mavjud − uch bob yo tushib qolgan, yo boshqalariga qo‘shilib ketgan).

“Hibat ul-haqoyiq” ilk bor uyg‘ur yozuvida bitilgan. Uning nusxalari ko‘p bo‘lib, ularda asar hajmi turlicha. Hozircha ma’lum qo‘lyozma uchtasi to‘liq, qolgani parchalardan iborat. 1444-y. Samarqandda Zaynulobiddin baxshi, 1480-y.iIstanbulda Abdurazzoq baxshi va Turkiyaning To‘pqopi kutubxonasidagi noma’lum kotib tomonidan ko‘chirilgan qo‘lyozmalar e’tiborli nusxalar hisoblanadi. Asarni birinchi marta turk olimi N.Osimbek topib, nashr ettirgan (qisqartirilgan nashri − 1906, to‘liq nashrlari − 1916, 1925). Keyin 1951 va 1992-yy.da uni R.R.Arat so‘zboshi, izohlar va oltita nusxasining faksimilesi va Turkiyada XVI asrda ko‘chirilgan arab yozuvidagi nusxasining tarjimasi b-n nashr ettiradi. O‘zbekistonda asardan parchalar Fitrat, Oybek, P.Shamsiyev, S.Mutallibovlar tomonidan o‘zbek adabiyoti namunalaridan tuzilgan majmualarda e’lon qilingan. So‘ng u Q.Mahmudov tomonidan alohida kitob sifatida e’lon qilindi (1968; 1971). O‘tgan asr oxirlarida uyg‘ur olimi H.Temur va T.Ayyub, qozoq olimlari E.Qurishjonov va B.Sog‘indiqovlar uni asl matni, tarjima va fotonusxalari b-n nashr ettirganlar. Shuningdek, Y.E.Bertels, A.Fitrat, M.F.Ko‘pruli, T.Takin, E.Rustamov, N.Mallayev, A.Qayumov, A.Hayitmetov, A.Rustamov, M.Imomnazarov, B.To‘xliyev, N.Rahmonov, I.Haqqulov, G.Xo‘janova va boshqalar Y.A.A. va “Hibat ul-haqoyiq” haqida u yoki bu darajada tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Аҳмад Югнакий. Ҳибат ул-ҳақойиқ. – Т., 1968, 1971; Қадимги обидалар. – Т., 1972; Қадимий ҳикматлар. – Т., 1987; XI–XIV асрнинг туркий ёдгорликлари. – Т., 1994; Абдурауф Фитрат. “Ҳибат ул-ҳақойиқ” // Танланган асарлар. 3 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2000; Маҳмудов Қ. Аҳмад Югнакийнинг*

“Ҳибат ул-ҳақойиқ” асари ҳақида. – Т., 1972; Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т., 1976; Ўзбек адабиёти тарихи. 5 жилдлик, 1-жилд. – Т., 1978; Буюк сиймолар, алломалар. 1-китоб. – Т., 1995; Хўжанова Г. “Ҳибат ул-ҳақойиқ” ҳақиқатлари. – Т., 2001; Раҳимов К. Абдулкарим ас-Самъоний “Юганак” ҳақида // “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2004, 1-сон.

M.A., E.O.

YUZ – qoplondan kichikroq bo‘lgan yirtqich hayvon. Undan ovda foydalanadilar. Ov iti ham deydilar. Uning yordamida ko‘proq ohuni ovlaydilar. Nonxo‘rishni yaxshi ko‘rib yeydi.

N. forsiy qit’alaridan birida ochofat kishini Y.ga qiyoslaydi:

Ser bar har xo‘shaye dast mazan,
Ki shavad mujibi sad ranj-u fasod.

Yuz k-ablahtari hayvonot ast,
Ser az to‘ma chu gardad ba murod.

Oh-u ar shox zanad bar xalqash,
Natvonad so‘yi o‘ chashm kushod.

Tu xud insoni-yu hikmat fani tu,
Kamtar az yuz shavi sharmat bod.

Tarj.: Qorning to‘q bo‘lsa, har narsaga qo‘l urma, chunki u yuz ranj-u fasodga sabab bo‘ladi. Y. degan maxluq hayvonlar ichida eng ablahi bo‘lib, ovqatdan to‘yib murodiga yetganida kiyik agar uning halqumiga suzsa, ko‘zini ochib u tomonga qarolmaydi. Sen, axir, insonsan-ku, hikmat sening fazilating hisoblanadi. Y. degan maxluqdan ham tuban ketish sen u-n uyatdir.

Ad.: *Алишер Навоий. Девони Фоний. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Фарҳанги забони тожики. Жилд 2. – М., 1969; Ғиёс ул-луғот. Жилд 2. – Душанбе, 1988.*

E.O.

YUZ LAFZ – N. “M.L.” asarida tilga olgan fe’l so‘z turkumiga oid so‘zlar majmuasi, tilshunoslikka oid atama. N. kitobda bular xususida ilmiy uslubda ma’lumot yozgan va ba’zilarini baytlar misolida izohlashga harakat qilgan: “Bu yuz lafzdurki, g‘arib maqosid adosida ta’yin qilibdurlarki, hech qaysi uchun sort tilida lafz yasamaydurlarki, barchasi muhtojun ilayhdurki, takallum chog‘ida kishi anga muhtoj bo‘lur. Ko‘pi andoqdurki, aslo aning mazmunin tafhim qilmoq bo‘lmas va ba’ziniki, anglatsa bo‘lgay, har lafz tafhimi uchun necha lafzni tarkib qilmag‘uncha bo‘lmas, ul dag‘i arabiy alfoz madadi bila va turk alfozida bu nav’ lafz ko‘p topilur. Masalan, bu mazkur bo‘lg‘on yuz lafzdin bir nechaga mashg‘ullik qilib sobit qilali, to xasm muqobalada ilzom bo‘lsunki, o‘zgalarni munga qiyos qilsun.”

N. turkiy va forsiy tillarni qiyosiy aspektda o‘rganar ekan, ma’lumotida “...takallum chog‘ida kishi anga muhtoj bo‘lur” deb alohida tushuntirish bergan.

Ad: *Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

B.R.

“YUZ TUMAN NOPOK ERDIN YAXSHIROQ...” – N.ning “N.Sh.” devonidagi qit’asi:

Yuz tuman nopok erdin yaxshiroq
Pok xotinlar ayog‘ining izi.

Lut o‘g‘lin ko‘rki soldi tiyralik
Dinga nafs ilgida tab’i ojizi,

Dahr aro yoqti sayodat mash’alin,
Pok ravliqtin rasululloh qizi.

“Nopok” degan birgina so‘z odamning barcha yaxshi xususiyatini yo‘qqa chiqaradi. Balki shuning u-n N. yuz tuman nopok erdin

pok xotinlar ayog‘ining izini ortiq va qadrliroq bil, degan. Anbar Otin she’rlaridan birida ayol yuksakligini tan olmagan erkaklarning fikrlarini ifodalab: “Erni xotindin afzal qilib yaratgan deydilar”, deb yozgandi. Bu – qoloqlik va ojizlikning hukmi. Ayol u-n poklikdan ko‘ra afzallik yo‘q. Buni Hazrat N. Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.)ning qizi (rasulullo qizi) Bibi Fotima (r.a.) misolida ta’kidlaydi. Ikkinchi baytdagi dalil – “o‘z qavmini ma’naviy buzuqlardan qaytarib, to‘g‘ri yo‘lga sola olmagan Lut payg‘ambar tasarrufidagi voqealar”ga (Y.Is’hoqov) pokizalikdan Hasan (r.a.) va Husayn (r.a.) singari saodatmand o‘g‘illarga ona bo‘lgan Bibi Fotima (r.a.) taqdiri qarama-qarshi qo‘yiladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2011; Ҳаққул И. Касби камол ўзни танишдир. – Т., 2021.*

I.H.

“YUZIGA ASLI YOMONNING...” – N. ning “G‘.S.” devonidagi qit’asi:

Yuziga asli yomonning ko‘p ochma gulshani xalq,
Siyax gilemga albatta mehr aylama fosh.
Ki qilmadi gul isi birida toza ruh jual,
Quyosh charog‘iga parvona bo‘lmadi xuffosh.

Odam bolasi onadan yomon bo‘lib tug‘ilmaydi. U tarbiyatsizlik tufayli yoki nosog‘lom muhit ta’sirida yomon shaxs sifatida shakllanadi. Xo‘sh, bundaylarni yaxshi muomala-munosabat b-n o‘zgartirish mumkinmi? Qit’aning umumiy mantig‘i bu savolga: “Mumkin emas”, – deb javob qaytarishni talab etadi. Va ayni paytda yuqoridagi fikrimizni bir qadar isloh qilish majburiyatini ham tug‘diradi. Ilondan ilon paydo bo‘ladi, chayondan chayon, deyishadi. Xuddi shunga o‘xshab badaxloq ota-onalardan yomon farzandlar ham tug‘iladi. Bular N. iborasi b-n aytganda, “asli yomon”lardir. Bobomizning nasihatlariga amal qiladigan bo‘lsak bunaqalarga xushxulqlik ko‘rsataverish donolikdan emas. Negaki, “siyoh gilam”ga qancha nur to‘kilmasin, uning qaroligi ortsa ortadiki, kamaymaydi. “Asli yomon”ning qora gilamga qiyoslanishi b-n ham kifoyalanish mumkin edi. Lekin mana bu o‘xshatish shoir nuqtayi nazarini yanada yorqinroq ayon etadi:

Ki qilmadi gul isi birla toza ruh jual,
Qo‘yosh charog‘iga parvona bo‘lmadi xuffosh.

Jual – qoraqo‘ng‘iz (tezakqo‘ng‘iz). Uning qismati gul isinimas, tezak bo‘yini hidlash. Shuning u-n unga gul isi birla ruhni tozalash nasib etmagan. Xuffosh – ko‘rshapalak-chi? Uning hayoti zulmat bag‘rida kechadi. Ko‘rshapalak “quyosh charog‘iga” parvonalikdan mahrumdir.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Ҳаққул И. Касби камол ўзни танишдир. – Т., 2021.*

I.H.

YULDASHEV Toboshar (1973) – f.f.n, dotsent. 2003-y. “Navoiy va Boburning islom farzlariga bag‘ishlangan asarlarida qo‘llangan she’riy atamalarning lisoniy tahlili” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan. Olim “S.M.”da haj amallari haqida yozar ekan, Alloh o‘rnida do‘st va somi’ so‘zlari qo‘llanishini ta’kidlaydi.

Asarda qo‘llangan shar’iy atamalarning muayyan qismini turkiy so‘zlar tashkil qiladi: tengri, yo‘vmaq, o‘luksa va boshqalar. Arabcha so‘zlar quyidagi vaznlarda ishlatilgan:

a) af’ol vaznidagi ko‘plik: *a’mol-amallar*;
b) fu’alo vaznidagi ko‘plik: *ulamo-olimlar*;
v) fu’al vaznidagi ko‘plik: *umam-ummatlar*;
g) fu’ol vaznidagi ko‘plik: *tujjor- tujoratlar*;
d) af’ilo vaznidagi ko‘plik: *anbiyo-nabiylar*.

Forscha so‘zlarga quyidagilarni kiritish mumkin: *pok, xudoy, tarozu, guvoh, ro‘zador, peshin* va boshqalar.

Shar’iy atamalar quyidagi qo‘shimchalar vositasida yasalgan: *-at-jamoat, karahiyat; -liq –lig‘ -lik: poklik, arig‘lik, tanug‘luq; -siz: kafforatsiz, niyatsiz; -no: nobolig‘, nomuayyan; be- besunnat, befariza.*

Ad.: *Юлдашев Тобошар. Навоий ва Бобурнинг Ислом фарзларига бағишланган асарларида қўлланган шаръий атамаларнинг лисоний таҳлили. Филил. фан. номз. дисс. автореф. – Т., 2003.*

E.U.

YULIAN – Rim imperatori. 360–363-yy.da taxtga o‘tirgan. Bunga qadar u Galliyada legion qo‘mondoni bo‘lgan. Sobiq imperator Konstansiy Galliyadagi Rim legionlarini Sharqqa yuborib, Eronga qarshi urushda foydalanmoqchi edi. Bundan norozi bo‘lgan legionerlar isyon ko‘tarib, Y.ni imperator deb e’lon qilganlar. Konstansiy hokimiyatdan mahrum bo‘lgan va vafot etgan.

Y. nasroniylikka qarshi bo‘lgan. U taxtni egallagach, xristianlik ta’limotini maktablarda o‘qitishni taqiqlagan. Y. Eronga qarshi urush boshlagan. Urushning dastlabki davrida Y.ning omadi kelgan, uning qo‘shinlari fors armiyasiga birin-ketin zarbalar berib, Sosoniylar imperiyasining katta qismini egallab olgan. 363-y. da esa Y. Sosoniylar davlati poytaxti Ktesifon (Madoyin) shahrini zabt etgan. Lekin shundan so‘ng omad undan yuz o‘girgan. sosoniylar hukmdori Shopur II tashabbusni o‘z qo‘liga olib, Rim armiyasini mag‘lubiyatga uchratgan.

Bu voqealar “T.M.A.”da o‘z aksini topgan. Bu o‘rinda N. bergan ma’lumotlar, asosan, yuqoridagi aytilganlarga mos keladi. N. ham dastlab urushda Qaysarning (ya’ni Yulianning) qo‘li baland kelgani va u Sosoniylar davlatining katta qismini bosib olganini tasdiqlaydi: “Qaysar ... sipoh tortib yurub, aning mulkini olib, ko‘p buzug‘luq qildi”. N.ning yozishicha, faqat Rudbor va Shahriyor degan ikki muzofot Shopurning kishilari qo‘lida qolgan, boshqa barcha yerlar Rum qo‘shini tomonidan zabt etilgan. Shopur bu ikki muzofotdagi odamlarini o‘ziga qo‘shib, Qaysar b-n jang qilgan va yengib chiqqan.

Y.ning urush harakatlarining dastlabki davridagi g‘alabalarini N. o‘ziga xos tarzda izohlaydi. Uning yozishiga ko‘ra, Shopur urushdan oldin o‘z ehtiyotsizligi orqasidan (u yolg‘iz o‘zi Rumga borgan) Qaysar qo‘liga tushib qolgan. Qaysar uni tutib, Eronga qo‘shin tortgan. Shopur asirlikdan qutulishga muvaffaq bo‘lgan va shundan so‘ng dushmanni mag‘lub etgan.

N.ning Qaysarning keyingi taqdiri haqida bergan ma’lumotlari ham Yevropa tarixchilarinikidan farq qiladi. Ular Y.ning Shopur b-n bo‘lgan jangda og‘ir yaralangani va o‘lgani haqida yozadilar. N.ning fikricha esa, Qaysar asir qilib olingan. Shopur undan urush tufayli o‘z mamlakatiga yetkazilgan zararlarni undirib olgan va vayron bo‘lgan yerlarni Rum hisobidan obod qildirgan. Albatta, N. bu o‘rinda qandaydir manbalarga suyangan bo‘lsa kerak, lekin Y.ning 363-y., ya’ni Shopur b-n urush bo‘lgan yilda vafot etgani aniqdir. Undan keyin hokimiyatni boshqa bir imperator – Galliyen egallagan.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Ковалев С.И. История Рима. – Л., 1986; Гумилев Л. Древние тюрки. – М., 2008; Ражабов Қ. ва бошқалар. Жаҳон тарихининг муҳим саналари. – Т., 2011.*

Q.E.

YUNON – tarixiy-geografik toponim, N. asarlarida ham uchraydi. Tarixda antik sivilizatsiya markazlaridan biri bo‘lgan Y. haqida tarixiy va adabiy manbalarda, hujjatlarda qadimgi Y. xudolari va ma’budlari, Y. tili, Y. alifbosi, Y. madaniyati, Y. faylasuflari, Y. af-

sonalari, qadimgi Y. she'riyati, yunon maktablari haqida talaygina ma'lumotlar yozilgan.

N. "T.A.H.", "S.I." asarlarida Y. tarixiy-geografik toponimini mahorat b-n Y. aqidasi, davlat nomi, Y. faylasufi, hakimlari kabi ma'nolarda qo'llagan. N.ning "T.A.H." kitobida yozishicha, ya'ni "Yunon ahli aqidasi" bo'yicha, Xurmus hakim bu – Idris (a.s.)dir. O'qiymiz: "Idris (a.s.) suryoniy payg'ambardur. Otasi Yazid zamonida butparastliq shoy'e bo'ldi. Anga vahiy keldikim, ul elga butparastliqdin man' qilg'ay. ...Va ani xalq musallasun-na'ma deydilarkim, uchunchi payg'ambar va uchunchi hakim va uchunchi podshoh erdi. Yunon ahli aqidasi budurkim, Hurmus hakim uldur. Xat va nujum ilmini ul paydo qildi va kiymak va yemak andin qoldi. Haq taolo aning uchun o'tuz sahifa nozil qildi."

N. asarning "As'hobi kahf va ba'zi mutafarriq axbor" faslida Y.ni mamlakat nomi sifatida tilga olgan. U Y.ning butparast zolim podshohi Daqyunus va uning mulozimlari orasida musulmonlari ham bo'lib, ular hamisha yashirin tarzda ibodat qilishi haqida yozgan. Chunonchi: "As'hobi kahf va ba'zi mutafarriq axbor. As'hobi kahf bobida ixtilof ko'ptur. Muxtasari budurkim, Yunon mulkida Aqsus shahrida Daqyunus otlig' maliki jabbor bor ermishkim, ba'zi debdurlarkim, butparast ermish, ba'zi debdurlarkim, uluhiyyat da'vosi qilur ermish. Va bu as'hobi kahf, ba'zi rivoyat bila aning mulkiming buzurgzodalari va ba'zi rivoyat bila, navvob va mulozimlari ermishlar va musulmon ekandurlar. Va yoshurun Tengri taolo ibodatin qilur ermishlar. Daqyunus bu holdin voqif bo'lub, alarning qatli fikrida bo'lmish. Alar bu holni ma'lum qilib, ittifoq bila shahrlaridin qochib, el yo'luqur vahmidin yo'lsiz biyobong'a tushub, bir qo'ychig'a uchrab, qo'ichi dagi alarg'a qo'shulub, qo'ychining iti ham erishib, Raqim otlig' g'org'a kirmishlar."

N. "S.I."ning XXXVII bobida Xurosonda yashovchi ikki do'st haqida hikoya qiladi va ulardan birining safarga chiqishi hamda uning Y.da ma'lum muddat yashab, hikmat ilmga rag'bat ko'rsatishi, hakimlardan hikmat o'rganishi xususida maroq b-n gapirgan:

Ki, tushti guzargohi Yunon sori,
Yetishti o'luk – obi hayvon sori.

Yere ko'rdi tufrog'i hikmatsirisht,
Magar hikmat erdi anga sarnavisht.

Necha vaqt anda maqom ayladi,
Bilik kasbiga ehtimom ayladi.

Musohib bo'lub ahli hikmat bila,
Base ilm kasb etti rag'bat bila.

N. yana dostonda qadimgi Y. hakimi Arastuni shoh Iskandarning maslahatchisi sifatida talqin qilgan.

N. "M.N." tazkirasida alohida fiqra bag'ishlagan ba'zi shoir va adib haqidagi ma'lumotlarga yozilgan n.shunoslarning sharhlarida ularning nafaqat arab, fors, turkiy tilda, balki Y. tilida ham she'rlar yozgani xususida xabarlar bitilgan. M-n, O'zbekiston Qahramoni S.G'aniyeva "M.N."ning Amir Qosim Anvor haqidagi fiqraga yozgan izohida ham xuddi shunday ma'lumot uchraydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

B.R.

YUNUS IBNI MATTO (a.s.) – mursal payg'ambar. Yunus ibn Matto ibn Binyamin ibn Ya'qub ibn Is'hoq ibn Ibrohim (a.s.)dir. Yunus (a.s.) Iso ibn Maryamga o'xshab onasining nomi b-n mashhurdir. Payg'ambarlardan Y.I.M. va Iso ibn Maryam (a.s.)largina onalarining nasabi b-n atalgan. U Shom mamlakatining Mavsil qishloqlaridan biri ninavolikdir. N. "T.A.H."da Y.I.M. (a.s.)ning Sulaymon

avlodidan bo‘lgani va undan keyingi mursal payg‘ambar ekani haqida yozadi.

Alloh taolo Y.I.M. (a.s.)ni Suy xalqini iymonga da’vat qilish u-n yuboradi. Suy xalqi uni yolg‘onchiga chiqaradi. G‘azablangan Y.I.M. (a.s.) qavmini qarg‘aydi va balo kelganda “duo qilish uchun mani topolmasinlar” deb, Allohning roziligisiz ahli – oilasini olib, qavmidan maxfiyroq joyga chiqib ketadi. Y.I.M. (a.s.) xalq orasidan chiqib ketgandan keyin Tangri uning qavmiga olov yog‘ib turgan bir bulutni yuboradi. Qavm bu holni ko‘rgach, Y.I.M. (a.s.)ga iymon keltirish u-n uni axtara boshlaydilar. O‘z payg‘ambarlarini topishga ko‘zlari yetmagandan keyin, “Yunus ibn Matto (a.s.) yo‘q bo‘lsa, Alloh hozir-ku!”, deb katta-kichik boshlarini yalang qilib tavba-tazarruga tushishadi. Tavbalari haqiqiy bo‘lgani u-n Alloh tavbalarini qabul qiladi va ulardan baloni daf etadi.

Y.I.M. (a.s.) qavmidan uzoqlashib, bir kemaga minganda, dengizda bir nahang baliq paydo bo‘lib, kema ahliga hujum qila boshlaydi. Hammalari baliqqa bir kishini qurbon qilishga kelishib, qur’a tashlaydilar. Uch marta ham qur’a Y.I.M. (a.s.) nomiga chiqqandan keyin u kishini dengizga tashlashga qaror qilishadi. Y.I.M. (a.s.) g‘azabga uchraganini bilib, o‘zini baliqning og‘ziga tashlaydi. Baliq uni yutadi va Tangri baliqning qornida o‘z payg‘ambarini eson-omon saqaydi. Y.I.M. (a.s.) baliqning qornida doimo tasbeh aytadi va tavba qiladi. Oxir-oqibat Tangri qirq kundan keyin uni uch qorong‘ulikdan: kemaning, suvning va baliq qornining qorong‘uligidan qutqaradi. Baliq qirg‘oqqa kelib uni chiqarib tashlaydi. Zaiflashib qolgan payg‘ambarga amri ilohiy b-n bir kiyik sut beradi, daraxt soyabon bo‘ladi va yana qirq kun o‘tkandan keyin o‘z holiga kelib qavmiga qaytadi. Qavmi uning hidoyati b-n iymonga musharraf bo‘lishadi va Y.I.M. (a.s.) Tangri hukmini bajo keltiradi. Uni Kufada dafn etilgan, deyishadi. Bu voqealarga N. ruboiysida mana bu tariqa ishora qiladi:

Yunuski, nubuvvat ko‘zini yorutti,
Takzib ila qavm ko‘nglini o‘rgotti.
Bolig‘ ichida agarchi maskan tutti,
Ham oxir ajal bolig‘i ani yutti.

Ad: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Пайғамбарлар тарихи. (исломия тарихи). – Т., 2014.*

S.R.

YUNUS RAJABIY (1897–1976, Toshkent) – O‘zbekiston xalq artisti (1953), O‘zR FA akademigi (1966), Hamza nomidagi O‘zbekiston Davlat mukofoti sovrindori (1971), “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni (2000) sohibi, bastakor, xonanda va sozanda (nay, dutor), o‘zbek musiqa merosining to‘plovchisi. Y.R. bastakor sifatida N. ijodiga murojaat qilgan va “Ne navo”, “Yor mehri” , “Muhabbat dashti”, “Tong nasimi” (“Chapandoz” xalq kuyi asosida), “Koshki” (“Tanovor” xalq ashulasi asosida) ashulalarini N. g‘azallariga bastalagan. 1968-y. da Sayfi Jalil b-n hamkorlikda “Navoiy Astrobodda” musiqali dramasini yozgan. U N. ning dostonlari asosida “Farhod va Shirin” (1922), “Layli va Majnun” (1926) spektakllariga mos kuy va ashula yo‘llarini tanlagan.

B.R.

YUSUPOV Ibroyim (1929–2008) – XX asr qoraqalpoq adabiyotining namoyandasi. Shoir Chimboy tumanidagi “Ozod” qishlog‘ida tug‘ilgan. Qoraqalpoq davlat pedagogika institutini tamomlagan. “Amudaryo” jurnalida bosh muharrir, O‘zR FA QQ filiali N.Davqorayev nomidagi Til va adabiyot institutida il-

miy xodim, Qoraqalpog‘iston Yozuvchilar uyushmasi raisi, “Erkin Qoraqalpog‘iston” gazetasida bosh muharrir lavozimlarida ishlagan. O‘ttizga yaqin she’riy kitoblari bosilgan. “Baxt lirikasi”, “Sharq yo‘lovchisiga”, “Dala armonlari”, “Kuz shamoli”, “Ko‘ngildagi keng dunyo”, “Bulbul uyasi”, “Umr senga oshiqman” v.h. “Keksa tutdagi kuz” hikoya va ocherklar kitobi bosilgan. “Qirq qiz”, “Umrbek laqqi”,”Mangu buloq”, dramalarini yozgan. “Ajiniyoz” operasi u-n libretto yaratgan.

Shoirning yigirmaga yaqin kitoblari o‘zbek, rus va turkman tillariga tarjima qilingan. U N. g‘azallarining Qoraqalpog‘istondagi targ‘ibotchilaridan biridir. N.ga bag‘ishlab bir qator g‘azallar yozgan. U “Do‘stlik”, “El yurt hurmati” ordenlari b-n taqdirlangan. O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq shoiri, “O‘zbekiston Qahramoni” unvonlari sohibi. Berdaq nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan.

K.Q.

YUSUPOVA Dilnavoz Rahmonovna (1976, Kitob) – adabiyotshunos, f.f. d-ri, prof., O‘zMU O‘zbek filologiyasi fakultetida (1993–1998) o‘qigan. Shu universitetda aspirantura (2005–2008)da tahsil olgan. 1998-y.dan O‘zMU O‘zbek filologiyasi fakultetida, 2016-y.dan Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAUda pedagoglik faoliyatini olib bormoqda. Y.D.R. akad. B.Nazarov rahbarligida “Alisher Navoiy “Xamsa”sida mazmun va ritmning badiiy uyg‘unligi” mavzusida nomzodlik (2008), so‘ngra f.f. d-ri G.To‘ychiyeva ilmiy maslahatchiligida “Temuriylar davridagi aruzga doir risolalarning qiyosiy tahlili” mavzusida doktorlik (2019) dissertatsiyalarini himoya qilgan. Respublika va xalqaro miqyosda yuzdan ortiq maqolasi chop etilgan. “Alisher Navoiy “Xamsa”sida mazmun va ritmning badiiy uyg‘unligi” (2011), “Temuriylar davridagi aruzga doir risolalarning qiyosiy tahlili” (2019) monografiyalari, “O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi” (Alisher Navoiy davri, 2013), “Aruz alifbosi” (Navoiy poetikasidan saboqlar, 2014), “Adabiyotdan universal qo‘llanma” (2014, 2016, 2018), “O‘zbek mumtoz va milliy uyg‘onish davri” (2016), “Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari” (2019) o‘quv qo‘llanmalari, “Aruz va mumtoz poetikaga kirish” (2020) darsligi, “Risolayi aruz” (Abdurahmon Jomiy asari, 2014) tarjimalari nashr qilingan. Y.D.R. Respublika oliy o‘quv yurtlari talabalari u-n mo‘ljallangan “Navoiyshunoslik” (2018, 2020) darsligining hammualliflaridan biridir. “Alisher Navoiy: qomusiy lug‘at” (2016) tarkibidan o‘rin olgan 500 dan ortiq maqola Y.D.R. tomonidan yozilgan.

Y.D.R.ning nomzodlik dissertatsiyasida N. “X.”si tarkibiga kiruvchi dostonlar ritmining mazmun b-n bog‘liqligi masalasini o‘rganish bosh maqsad qilib olinib, ritmik unsurlar – vazn, ritmik variatsiyalar, qofiya, radif, badiiy san’at va ritmik urg‘uning “X.” dostonlari mazmunini ochishdagi o‘rni ko‘rsatib berilgan. Tadqiqotda ritmik variatsiyalarga ega bo‘lgan xafifi musaddasi maxbuni mahzuf va hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf vaznlarining N. “X.”si dostonlaridagi o‘rnini ko‘rsatish va ritmik variatsiyalarning dostonlar syujeti tizimidagi voqealar rivoji, qahramonlar ruhiy holatiga mos tarzda o‘zgarish sabablari, N. “X.”si tarkibiga kirgan dostonlardagi radif, qofiya va mazmun uyg‘unligi tadqiq qilingan.

Doktorlik dissertatsiyasida temuriylar davridagi aruzga doir risolalar tadqiqi maqsad qilib olingan bo‘lib, unda N.ning “M.A.” asari Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a”, Atoulloh Husayniyning “Badoye’ us-sanoye’”, Abdurahmon Jomiyning “Risolayi aruz”, Sayfi Buxoriyning “Aruzi Sayfiy”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Aruz risolasi” asarlari b-n qiyosiy jihatdan tahlil etilgan. Qiyosiy tahlil aruziy birliklar: *juzv, asliy rukn, zihof, bahr* va *doira*lar misolida amalga oshirilgan.

Ad.: *Юсупова Д. Алишер Навоий “Хамса”сида мазмун ва ритмнинг бадиий*

уйғунлиги. Монография. – Т., 2011; Юсупова Д. Темурийлар давридаги арузга доир рисолаларнинг қиёсий таҳлили. Монография. – Т., 2019; Юсупова Д. "Наводир ун-ниҳоя" девонига доир янгиликлар // Олтин битиклар. – Т., 2018; №1; Yusupova D. Comparison of prosody used in the works by Alisher Navoi and Abdurakhman Jami // ISJ Theoretical & Applied Science. – Philadelphiya, USA, 2019. Issue 05, Volume, 73; Yusupova D. Comparative analysis of treatises about aruz (prosody) by Nasir ad-Din Tusi and AlisherNavoi // EPRA International Journal of Research and Development (IJRD). Volume 05, issue 03, Marchl 2020.

S.O'., Sh.R.

YUSUF (a.s.) – Ya'qub (a.s.)ning o'g'li. Qur'onda Y. (a.s.) qissasi "eng go'zal qissa", deya ta'riflanadi va u "Yusuf" surasida to'liq keltiriladi. N. yozishicha, Y. (a.s.)ning mashhur qissasi to'g'risida bir qator nazm va nasr ahli, jumladan, Firdavsiy va Jomiylar, Xoja Mas'ud Iroqiy va yana bir qator azizlar bu mavzuda qalam tebratgan. O'zi ham "umr omonlik bersa, turk tili bila" Y. (a.s.) qissasi to'g'risida asar yozishni niyat qilib, shunday bayt keltiradi:

Haq bu tavfiqni nasib etgay,
Yo nasib ulcha Tangridin etgay.

N. bu borada yozadi: Y. (a.s.) bani odam jinsining jamilrog'idur. Bir kuni o'z yuzini ko'zguda ko'rub, husnining istig'nosidan g'ururga ketdi va ko'nglidan "oyo agar men qul bo'lsam edi, mening bahoyimni kim bera olgay ekan" degan fikr kechadi. Haq taolo g'ayrat ko'rguzib, shundoq taqdir qildiki, og'olari Yusufni o'n yetti (qalb) dirhamga sotdilar".

O'gub jannat gulin voiz tilarkim, aylasam savdo
Necha eski diramg'a Yusufum, vah, ko'rgil idrokin.

Y. (a.s.)ning beqiyos husni, otasi Ya'qub (a.s.)ning unga bo'lgan cheksiz muhabbati, akalarining Y. (a.s.)ga hasad qilib uni quduqqa tashlashlari va arzimagan pulga Misr karvoniga qul qilib sotib yuborishlari hikoya qilinadi.

Misrga ketayotgan karvonga sotilgan Y. (a.s.)ning boshidan kechirganlari, uni Misrda Maliki Rayyonning xazinachisi bo'lgan Misr azizi sotib olishi, Azizning Zulayho ismli xotini bo'lganligi va uning Yusufga oshiq bo'lib qolgani ko'pchilikka ma'lum. Bu vaqtda Y. (a.s.) o'n yetti yoshida edi. Zulayho o'z niyatiga erisha olmagach, Azizga Y. (a.s.)dan shikoyat qiladi. Aziz voqeani surishtirgach, Zulayhoning yolg'ondan Y. (a.s.)ga tuhmat qilgani ma'lum bo'ladi. Bu gap Misr ahli orasida yoyilib ketadi va Zulayho "falon kan'oniy qulg'a oshiq bo'lub, o'zin xalq tiliga solibdur" degan ta'na malomatlar ichida qoladi. Zulayho bu holat o'z qo'lida bo'lmaganini ta'nachilar va tannozlarga bildirib qo'yish maqsadida ziyofat uyushtiradi. Ular Y. (a.s.)ni ko'rgach, oldilarida turgan mevalarni kesish u-n olib kelingan pichoqlar bilan mevalar o'rniga qo'llarini kesa boshlaydilar. Ayollar o'z hollaridan voqif bo'lib, Zulayhoni ma'zur tutadilar...

Qullik davrida Y. (a.s.) va Misr Azizining xotini – Zulayho o'rtasidagi mojarolar, tuhmat b-n zindonga tushishi, tushlarni to'g'ri ta'bir qilish mo'jizasi, umrining oxirida sabri va layoqati tufayli Misrda aziz bo'lgani akalari b-n uchrashib ularni kechirgani hikoya qilinadi. Otasining uning firoqida yig'lab ko'zlari ko'r bo'lganini bilgan Y. (a.s.) tirikligi va sog'inch nishonasi sifatida ko'ylagini otasiga yuboradi. Ko'ylakni ko'ziga surtgan otaning ko'zlari ochiladi.

N. uchun Y. (a.s.) qissasi ijod va ilhom manbai bo'lgan. Y. (a.s.) go'zallik, poklik va donishmandlik timsoli bo'lsa, Ya'qub (a.s.) ma'shuqi vaslini qumsagan, unga nigoron va intizor bo'lgan sadoqatli oshiq sifatida keltiriladi.

Gulruxum yodi bila ko'nglum erur gulga haris,
Kim, berur Yusuf isi qon aro yuz pora qamis...

Istab ul butni xirad belida zunnorin ko'rung,
Bir kaloba ip bila Yusuf xaridorin ko'rung...

Yo falak berdi yig‘i, ko‘r aylagan Ya’qubning
Ko‘zlari ochilmoq uchun Mohi Kan’on mujdasin.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Ислом энциклопедияси. – Т., 2004; Пайғамбарлар тарихи (Исломият тарихи). – Т., 2014; Муҳаммад Сайиид Тантовий. Пайғамбарлар тарихи (Қуръони карим қиссалари). 1-2. – Т., 2014.*

S.R.

YUSUF (BADIIY) – taniqli shoir va adabiyotshunos, musiqa ilmi bilimdoni, mohir sozanda Y. Andijonda tavallud topgan. *Badiiy* taxallusi b-n ijod qilgan. Xondamirning yozishicha, aruz ilmi, sanoye’ va badoye’, muammo fanidan xabardor bo‘lgan. Yoshligida ilm o‘rganish maqsadida Samarqandga borib, N. b-n tanishgan. N. “M.N.”da *“Faqir tahsil uchun Samarqandg‘a borg‘onda, ul Andijondin keldi va anda faqir bila bo‘lur erdi. Sig‘ari sin jihatidin she’rida xomlik bo‘lsa faqir isloh qilur erdim”*, – deya qayd etadi.

Y. Husayn Bayqaroning hukmronligi yillarida Hirotga boradi va taniqli usta Shodiydan musiqa sirlarini o‘rganib, uning mashhur shogirdlari qatoridan joy oladi. N.ning xizmatida bo‘lib, uning homiyligida ijod qilgan. In’om-u ehsonlaridan bahramand bo‘lib, Hirot madaniy muhitida o‘ziga xos baland mavqe’ga ega bo‘lgan. Xondamir “Xulosat ul-axbor” asarida *“Ta’bi va zehnining nuqsonsizligi bilan ma’lum, doimo oliyjanob...”*, bo‘lganini yozadi. N. “M.N.”da Y.ning forsiy tilda yozilgan quyidagi baytlarini keltiradi:

Gar bad-in obu havo ko‘yat buvad manzilga ham,
Ne zuloli Xizr boyad ne dami ruhullaham.

“Mir’ot us-safo” qasidasi tatabbu’sida bu bayti yaxshi voqe’ bo‘lubturkim:

Duri maqsud jo‘yon majma ul-bahrayn shud sufi
Ki, bahre dar ast az chashmayi
har chashmi giryonash.

Y. “Devon” tartib bergan (“Kitobxonayi madrasayi fuqaho”) hamda Xusrav Dehlaviy va N.ga tatabbu’ qilib qasidalar bitgan. Bu xususda Bobur: *“Yana Yusuf Badiiy... Farg‘ona viloyatidindur, qasidani yomon aytmas ekandur”,* – deya qayd etadi.

Y. o‘z she’rlaridan ayrimlariga turk-zarb usulida Navro‘z maqomida kuylar ijod qilgan. Yaratgan kuylari xalq o‘rtasida keng yoyilgan va ko‘p kuylangan. Ularning miqdori 360 dan ortiq. Muammo ilmi qoidalariga bag‘ishlangan “Risolayi muammo” asarini yozgan. (Mazkur risola f.f. d-ri J.Jo‘rayev tomonidan O‘zR FAShI qo‘lyozmalar fondida 2893/IV va 9005/VI raqami ostida saqlanayotgani aniqlangan). Y.ning lug‘atshunoslik sohasiga doir asarlari ham mavjud. Xususan, “Tajnis ul-lug‘ot”, “Risolayi lug‘ot”, “Se lug‘oti Badiiy”, “Qasida dar halli lug‘ot”, “Salsa se lug‘ot”, “Manzum dar bayoni lug‘ot”, “Nazm ul-salosa fil-lug‘ota”, “Nazm ul-salosat”, “Lug‘ot” kabilar shular jumlasidan.

Umrining oxirgi yillarida Saraxsda yashagan. Xondamirning yozishicha, 897 (1491/92)-y.da vafot etgan. Mozori hazrat Shayx Luqmon xonaqohida joylashgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. “Бобурнома”. – Т., 2012; Навоий замондошлари хотирасида. Тузувчи: Ахмедов Б., 1985; Жалолиддин Жўраев. Бадиий Андижоний ва унинг филологияга оид асарлари хусусида. 2001; Қаюмов А. Бобур давридаги Андижон адабий муҳити. Хожа Юсуф Андижоний. – Т., 2009; Ғиёсиддин ибн Ҳумомиддин Хондамир. Ҳабибу-с-сийар фи ахбори афроди башар (Башар аҳли сийратларидан хабар берувчи дўст). Форс тилидан Ҳазратқулов Ж., Бекжонов И. Таржимаси. – Т., 2013.*

E.Q.

“YUQORI O‘LTURURNI KIM TILASA...” – N.ning “N.Sh.” devonidan o‘rin olgan qit’asi:

Yuqori o‘ltururni kim tilasa,
Kishilikdin ani yiroq bilgil,
O‘lturur safda yuqorilikdin,
O‘lturur safda yaxshiroq bilgil.

Qadimgi Xitoyda aka-uka ikki podshoh bo‘lgan ekan. Ular uzoq vaqtlar bir-birlariga xalaqit bermasdan, birodarlikda davlatlarini boshqarishibdi. Ammo katta shoh nihoyatda shuhratparast ekan. Shu sabab bo‘libdi-yu, o‘rtada nizo ko‘tarilibdi. Nizo qonli jangga aylanibdi. Oxiri yoshi kichik podshoh og‘asini yengibdi. U qarindoshlik burchi tufayli akasiga: “Tila tilagingni”, debdi. O‘shanda mag‘lub shoh: “Men yengildim. Toj-u taxt, lashkar-u davlat hammasi qo‘limdan ketdi. Mayli, nimani xohlasang barchasini ol. Barchasi seniki. Menga faqat bitta narsa – hammadan yuqori turish, odamlar ustidan hukmronlik qilish huquqini qoldir”, degan ekan. Bu – inson qonidagi istak. U sharoitga qarab shakllanadi, o‘sib rivojlanadi. Shohning so‘zlari shu xohishning eng taraqqiy topgan nuqtasini ifodalaydi. Yuqori o‘ltirmak tilagi, ongli ravishda kimlarnidir o‘zingdan pastda ko‘rmoq rag‘batidir. Bundan bora-bora ko‘p pinhoniy zulmkorliklar, oshkora bepisandlik va bag‘ritoshliklar tug‘iladi. N. mana shularning barisini to‘g‘ri mushohadadan o‘tkazganligi u-n ham:

Yuqori o‘ltururni kim tilasa,
Kishiliqdan ani yiroq bilgil, –

deb ko‘rsatma bergan. Mansab, manfaat, boylik shuhrat ma’nolarida “yuqori o‘lturmak”-likka intilish – iblisona harakat. Chindan ham shunday kimsalarni odamiylik sharafidan yiroq hisoblash kerak. N.ning hukmicha, safda “yuqoriliq”qa yetishish ham sharafmas. Yaxshisi – oddiy odamlar qatorida bo‘lishdir. Muhimi, mana shu safdan o‘zni ajratmaslikdir.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Ҳаққул И. Касби камол ўзни танишдир. – Т., 2021.*

I.H.

Z

ZEBOIY XONIM (XV asr) – shoira. N.ga zamondosh, uni Jomiy madh etgan. N. "M.N."-ning III majlisida Mavlono Zeboiy degan shoir haqida "men uni ko‘rmaganman, ammo she’rini eshitganman", – deb yozadi. Ayol shoiralar haqidagi tazkiralardan ma’lum bo‘ldiki, bu ijodkor ayol va she’rlari ancha shuhrat tutgan ekan. N. Z.X.ning quyidagi forscha matla’sini keltiradi:

Qomatat shevayi raftor chu bunyod kunad.
Sarvro bandayi xud sozad-u ozod kunad.

Tarj.: Qomating yurishni boshlasa, sarvni o‘z bandasi qilib tashlaydi, ham ozod qilib yuboradi.

Z.X. N. davridagi adabiy jarayonda ishtirok etgan shoiralardan biridir.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*
S.G‘.

ZAYD ZAHHOB – N.ning "S.S." dostonidagi ikkinchi hikoyatning qahramoni. Z.Z. dostondagi murakkab obrazlardan biri. N. bu obraz misolida insonning naqadar murakkab xilqat ekanini, uning tiynatidagi turli ibtidolarni (yomonlik, yaxshilik) va inson shaxsiyatida shu b-n bog‘liq ravishda mavjud qarama-qarshiliklar va ziddiyatlarni ko‘rsatib beradi. Z.Z. bir tomondan, mohir hunarmand, o‘z ishini san’at darajasiga ko‘targan zargar, tengi yo‘q muhandis va ixtirochi. Bundan tashqari, u katta aql va salohiyat egasi. N. uni hakim va faylasuf deb ham ataydi. Ikkinchi tomondan esa, u o‘z manfaati yo‘lida hech qanday ishdan tap tortmaydigan makkor tovlamachi, qo‘li qing‘ir yulg‘ich. Z.Z.ning iste’dodi, aqli, ixtirochiligi uning shoh u-n yasab bergan taxti misolida ko‘rinadi. N. tasvirida bu taxt bugungi kunning eng ilg‘or texnika yutuqlarini eslatadi.

Shoh taxtga o‘tirmoqchi bo‘lib, uning zinasining birinchi poyasiga oyoq qo‘yganda, poyalar bir-biriga kirishib, pastga tushadi. Bundan tashqari, ushbu taxt ishora vositasida boshqariladi va o‘zi yuradi. Bular Z.Z.ning ixtirochi sifatidagi iqtidori naqadar ulkanligini ko‘rsatsa, taxtning hashamati va bezaklari uning mislsiz san’tkorligini o‘zida namoyish etadi. Lekin shunday mo‘jizani yaratgan bu iste’dod va san’at sohibi ayni paytda boylik orttirish u-n pastkashlikka qo‘l urgan, taxt yasash u-n xazinadan berilgan oltinlarning bir qismini o‘zlashtirgan va o‘rniga kumush qo‘shgan edi. O‘g‘riligi fosh bo‘lib zindonga tashlangan, bor-yo‘g‘i musodara qilingan Z.Z.ning xatti-harakatlari uning boshqalarga o‘xshamaydigan, favqulodda kuchli shaxs ekanini ko‘rsatadi. U har qanday og‘ir ahvoldan ham qutulib chiqish mumkin, deb hisoblaydi, umidsizlikka tushmay zindondan qochish rejasini tuzadi va uni amalga oshiradi. Bu o‘rinda Z.Z.ning kuchli irodasi namoyon bo‘ladi.

Z.Z.ning yot ellardagi sarguzashtlari davomida shaxsiyatining yana bir qator qirralari ochilib boradi va N. uni "faylasuf, hakim" deb ta’riflagani bejiz emasligi ayon bo‘ladi. Qisqa vaqt ichida u o‘zi u-n butunlay begona bo‘lgan dinning mohiyatini to‘liq anglab oladi va tez orada ulkan bir rahnamo mavqeyini egallay-

diki, bu mazkur obrazning yuksak intellektual salohiyatidan dalolat beradi. Ammo bu salohiyat o‘zgacha maqsadlarga xizmat qiladi va Z.Z. ning bu xatti-harakatlari butparastlar ibodatxonasidagi boyliklarni o‘zlashtirishga qaratilgan. O‘z maqsadiga erishgan Z.Z.ning bundan keyingi ishlari ham hayratomuz. Mislsiz boylikka ega bo‘lgan Z.Z. endi istagan yerida yallo qilib yashashi mumkin edi. Lekin u yurtiga qaytadi va o‘z ixtiyori b-n yana zindonga kiradi. Shohning kasalini davolash u-n uni zindondan chiqarmoqchi bo‘lganlarida, u o‘z talablarini qo‘yadi va dushmanlarini jazolatishga erishadi. Ayni paytda u ilgari o‘zi shoh xazinasidan o‘zlashtirgan oltinlarni biriga o‘n qilib qaytaradi. Shohni davolagandan so‘ng o‘zi olib kelgan barcha boyliklarni unga topshiradi va hukmdorning buyrug‘i b-n bu oltinlar odamlarga taqsimlab beriladi.

“S.S.”dagi Z.Z. haqidagi hikoya va undagi Z.Z. obrazi shuni ko‘rsatadiki, N. o‘z davri voqeligini, ijtimoiy munosabatlarni yaxshi bilishi va asarlarda aks ettirishi b-n bir qatorda jamiyatning rivojlanishi tufayli sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni, ijtimoiy munosabatlarda endi paydo bo‘layotgan yangi tamoyilni ham ilg‘ay olgan. U pulning, moddiy boyliklarning jamiyat hayotidagi qadri ortib borayotgani va bundan keyin yanada ortishini, binobarin, bu hol kishilarning yangi qatlamini – pul, boylik u-n hamma narsaga tayyor, tovlamachilikni kasb qilib olgan, lekin ayni paytda nihoyatda aqlli, ayyor va iste’dodli kishilarning paydo bo‘lishiga olib kelishini ham muayyan darajada ko‘ra bilgan. Buning badiiy ijoddagi aksi o‘laroq, jahon adabiyotida firibgar va tovlamachilar obrazi yaratila boshlandi, romanchilikda esa hatto alohida bir yo‘nalish – firibgarlik romanlari (plutovskiy roman) yuzaga keldi. N.ning Z.Z. haqidagi hikoyasi va Z.Z. obrazi Yevropa romanchiligida ana shu yo‘nalish yuzaga kelishidan oldin mazkur mavzuda yaratilgan asar va obraz sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ad.: *Ўзбек адабиёти тарихи. 5 жилдлик, Жилд 2. – Т., 1977; История всемирной литературы. – М., 1971; Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

Q.E

ZAYNIDDIN ABU BAKR TAYABODIY (t.y.n. – v. 1388/89, Tayabod) – tasavvuf shayxlaridan. N. “N.M.”da Z.A.T. ilohiyotga oid bilimlarni puxta egallagani va Ahmadi Jomiy (q.s.) ruhidan tarbiyat topganini qayd etgan. Rivoyatlarga ko‘ra, Z.A.T.ga Ahmadi Jom g‘oyibdan “Sening dardingning davosi bizning shifoxonada” degan emish. Buni eshitgan Z.A.T. yetti yilgacha Tayaboddan Jomga oyoq yalang qatnab, Qur’onni ming marta xatm qilgan ekan. So‘ngra Mashhadga, u yerdan Tusga muqaddas mozorlar ziyoratiga borgan ekan.

N. Xoja Muhammad Porso (q.s.) tilidan Xoja Bahouddin Naqshband (q.) Makka safariga chiqqanda yo‘lni Buxorodan Hirotga solib, Z.A.T.ning 2-3 kun suhbatini olganini hikoya qiladi. Ular uchrashganda Z.A.T. ziyoratchining otini so‘raganda, u Bahouddin deb javob beribdi. Z.A.T. debdiki, “Bizing uchun bir naqsh bog‘lang. Alar debturlarki, kelibbizki, naqshe eltgaybiz”. Bu rivoyatdan ko‘rinadiki, Z.A.T. Xoja Bahouddin hunari – naqsh bog‘lash, ya’ni gul solish ekanligidan xabardor bo‘lgan, Xojaning javobida “Kelishimizdan maqsad bir gul naqshini, suratini (obrazini) olib ketishlikdir”, degan ma’noda go‘zal lutf qilgan.

N. Z.A.T. vafoti 791-y. muharram oyining oxirgi kuni (1388, 31-dekabr) panjshanba kuni deb ko‘rsatadi va shu munosabat b-n Malik Imomiddin Zavzaniy yozgan forscha 6 misra ta’rixni keltiradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

M.A.

ZAYNUDDIN MAHMUD NISHOPURIY (t.y.n. – vafoti 1513, Nishopur) – xattot. Sultonali Mashhadiyning shogirdi va kuyovi bo‘lib, kitoblarni tez va did b-n ko‘chirgan. Shayxim Suhayliy kulliyotini ustozi ko‘chirishni boshlab, u nihoyasiga yetkazgan va zarhal b-n ziynat ham bergan. N.ning yaqin kishilaridan bo‘lgan. Shoir kutubxonasida faoliyat yuritib, asar ko‘chirish b-n shug‘ullangan. Nasta’liq xatida mohir edi. N.ning hurmatiga erishgan, lutf-u ehsonidan bahramand bo‘lgan. Suls, tavqe’, riqo’, rayhon, zulf kabi xat turlarini turli usullarda yozishda ham shuhrat qozongan. Xat va xattotlik san’ati rivojiga hissa qo‘shgan. Mirali Hiraviyning ustozi. “Xulosat ul-axbor” (“Xabarlar xulosasi”) va “Mir’ot ul-olam” (“Olam ko‘zgusi”) asarlari muallifi. Xattotlik faoliyati mahsuli bo‘lgan Nozim Hiraviy devonining bir nusxasi Tehron davlat kutubxonasida, Jomiy devonining bir nusxasi Tehronlik Abdulhusayn Mas’ud Ansoriy kolleksiyasida, Bahrom Mirzo va Saidahmad Mashhadiy maktublaridagi 16 ta qit’a Saltikov-Shchedrin nomidagi Sankt-Peterburg Markaziy kutubxonasida saqlanadi.

Ad.: *Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985; Тарихи Рашидий. – Т., 2010; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988; Жилд 2. – Душанбе, 1989.*

E.O.

ZAYNULOBIDIN HUSAYNIY – (Taxallusi, to‘liq ismi: Zaynulobidin ibn Muhammad ibn Mahmud Husayniy) (t.y. v.n.) – bastakor, musiqashunos, shoir, olim. Hirotdagi Ixlosiya madrasasining mashhur mudarrisi oilasida tug‘ilib, o‘z davrining asosiy ilmlarini otasidan o‘rgangan. Ilmi bade’ va musiqa nazariyasida tengsiz edi. Ixlosiya madrasasida riyoziyot, falsafa, musiqa nazariyasi va ilmi bade’dan dars bergan. Jomiy va N. iltimosiga ko‘ra ovoz nazariyasi va amaliyotiga oid “Musiqaning ilmiy va amaliy qoidalari” risolasini yozib, N.ga bag‘ishlagan. Uning yagona nusxasi 42-inv. raqami b-n O‘zR FA Sharqshunoslik institutida saqlanadi. Risolada bir qator musiqa terminlari sharhlanib, past va baland ovozlarning hosil bo‘lishi haqida ma’lumot beriladi. Jumladan, dutor haqida ham batafsil ma’lumot berilgan.

Ad.: *Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988.*

E.O..

ZAKARIYO (a.s.) – Qur’oni Karimning 8 joyida nomi zikr qilingan payg‘ambarlardan biri. Nasabi haqida Qur’onda hech narsa deyilmagan bo‘lsa-da, N. “T.A.H.”da uning Sulaymon (a.s.) avlodidan ekanini yozgan. Ba’zilar Horun avlodidan deb aytishgan. Hadisda aytilishicha, Z. (a.s.) najjor (duradgor) bo‘lgan.

Z. (a.s.) Bayt ul-Maqdisda mujovirlik qilgan va Maryamning otasi Imron b-n amakivachcha bo‘lishgan. U Maryam tarbiyasini kafillikka olgandan keyin doimo holidan xabar olib turgan. N.ning ma’lumotiga ko‘ra, qachonki Maryamda ibodat qilish qobiliyati paydo bo‘lgach, Z. (a.s.) unga masjiddan bir xona ajratib beradi. Ajratilgan xonaning eshigi yo‘q bo‘lib, faqat zinadan chiqilgan. Xabar olib qaytilayotganda, zinadan kirish joyi qulflab qo‘yilgan. Maryamning oldida qishda yoz mevasini va yozda qish yeguliklari muhayyo bo‘lganini ko‘rgan Z. (a.s.) Maryamdan bu hodisalar haqida so‘raganida, Allohning lutfi ekanini aytgan.

Shunda Allohning har narsaga qodir ekanini bilgan Z. (a.s.) qari va zaif bo‘lsa-da, Allohning marhamatidan umid qilib, farzandsizlik dog‘ini ko‘rmaslik u-n Undan farzand berishini so‘raydi. Farzand so‘rashidan asosiy maqsad nasl qoldirish hamda gunoh ishlarga mashg‘ul bo‘layotgan “Bani Isroil” qavmini to‘g‘rilikka va haq dinga da’vat etadigan avlod bo‘lishini istaydi. Shunda unga yaqin zamonlarda tug‘ilajak va payg‘ambar bo‘lajak Yahyo (a.s.) haqida vahiy orqali xabar beriladi. N. ning yozishicha, Z. (a.s.) unday bo‘lsa, xotini homilador bo‘lganini qanday bilishi mumkinligini Allohdan so‘raganida – “Xotining

homilador bo‘lganida, sen odamlarga gapirolmay qolasan, faqat ishora b-n so‘zlaysan, bu holat uch kun davom etadi. Ana shunda bilgilki, ayoling homilador bo‘lgan bo‘ladi. Shu kunlarda sen Allohga tasbeh va tahlil aytishga mashg‘ul bo‘lgin”, – degan xitob bo‘ladi.

Z. (a.s.) ham boshqa payg‘ambarlar kabi xalqni yaxshilikka chaqirar va yomonlikdan qaytarishga harakat qilar edi. Maryam hazrat Iso (a.s.) ga homilador bo‘lib, uni tuqqandan keyin xalq onani ham, bolani ham ko‘p malomat qilishadi. Iso (a.s.) tilga kirib, Maryamning begunohligi isbotlangandan keyin ham malomatlar davom etgan. Haqiqatni tushuntirish Z. (a.s.) u-n og‘ir kechgan. Oxir-oqibat Z. (a.s.) Maryamni malomat qiluvchilardan uzoqqa olib ketadi. Uni quvadilar, u bir yog‘och yorig‘iga kiradi va yorig‘ berkiladi. Dushmanlar yetib kelib, uning kiyimini yoriqdan tashqarida ko‘radilar, arra olib kelib yog‘ochni kesishadi va uni o‘ldirishadi. N. bu voqeadan afsuslanib: “Bu yerda so‘z aytishdan, “balki dam urardin xoma tili lol va til xomasi gung maqol”-dir, yaxshisi maqsadga ko‘chaylik”, deydi.

N. “T.M.A.”da, Z. (a.s.), Yahyo (a.s.) va Jirjis (a.s.)larning ashkoniylardan Shopur binni Ashk zamonida yashagani haqidagi ba’zi xabarlarni keltirib o‘tadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Ислом. Энциклопедия. – Т., 2004; Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Ҳадис ва ҳаёт. 20-жуз. // Анбиёлар қиссаси. – Т., 2007.*

S.R.

ZAKI VALIDIY TO‘G‘ON (AHMAD) (1890–1972) – dunyoga mashhur tarixchi olim, siyosatchi va davlat arbobi. Z.V.T. o‘zbek mumtoz adabiyotini ham yaxshi bilgan va Ahmad Yassaviy, Mavlono Lutfiy, Shayboniy. Ubaydiy, So‘fi Olloyor kabi shoirlarimizga bag‘ishlab maqolalar yozgan. Uning N. shaxsi va ijodiyotiga qiziqishi e’tiborga loyiq. “Xotiralar” kitobida hikoya qilinishicha, bolalikdayoq u N. she’rlarini yod olgan: “Bolalik yillarida onam menga o‘z xotirasida olib qolgan ko‘plab she’riy parchalarni yod oldirardi. Bu parchalar kimga oid ekanini onamning o‘zi ham bilmasdi. Ammo, yillar o‘tgach, men Navoiy ijodini o‘rganar ekanman, ushbu parchalarning aksariyati she’riyat sultoni Navoiy qalamiga mansub ekanini bildim”.

Keyinroq Z.V.T. N.ning butun adabiy va ilmiy merosi b-n tanishib chiqadi. “Navoiyning Parij milliy kutubxonasida saqlanayotgan barcha asarlarini o‘qidim, Navoiyga doir mendan avval yozilgan eski va yangi asarlarning ham ko‘pchiligini ko‘zdan kechirdim”, – deydi u.

G‘arbdagi ilmiy tadqiqotlar va N. asarlari tarjimasi b-n tanishuv Z.V.T.da faqat ijobiy emas, balki jiddiy tanqidiy fikrlar ham uyg‘otadi. Uningcha, “sharqshunos Belinning “Xamsat ul-mutuhayyirin”, “M.Q.” va “M.N.”dan qilingan tarjimalarida xato sonsiz-sanoqsizdir. Fikr-qarashlaridagi asosiy chalkashliklaridan biri esa Navoiynigina tanitishi va turkiyda ijod qilgan buyuk san’atkorni Eron shoiri o‘laroq ko‘rsatishidir...”.

“Umumiy turk tarixiga kirish” kitobida u N. ning adabiy shaxsiyati, ijodiyotiga xos yetakchi xususiyatlar, turkiy adabiyotni rivojlantirishdagi tarixiy xizmatlarini umumiy tarzda ta’kidlab o‘tgan bo‘lsa, “Islom qomusi” u-n yozilgan “Alisher Navoiy” nomli maqolasida mutafakkir shoirning tarjimayi holi, siyosiy va madaniy hayotdagi mavqeyi, san’atkorligidan bahs yuritgan. “Alisher Navoiy asarlarida hokim bo‘lgan ruh, – deydi olim, – samimiyat, soddalik, azim va iroda. Xolislik, tom jiddiyat ila vobastalikda ifodalangan. N.ga ko‘ra, inson mohiyat e’tibori bilan hayotdan shodlanishi, dunyo go‘zalliklarini sevishi hamda ular uchun kuyib-yonishi zarurdir”.

Bu so‘zlarda N.ning dunyoqarashi, ideali, ijodiyotining tub mohiyati haqqoniy ta’riflangan.

Ad.: *Аҳмад Заки Валидий Тўғон. Умумий турк тарихига кириш (2-нашр). – Истанбул, 1970; Шу муаллиф. Хотиралар. – Истанбул, 1969; Ислом энциклопедияси. Жилд 1; Шарипов Р. Аҳмад Заки Валидий Тўғон (библиография). – Т., 1998.*

I.H.

ZAKOT – (tozalanish, sadaqa berish) molmulk, daromaddan beriladigan sadaqa, xayr-ehson. Islomning besh asosiy ruknlaridan biri. Shariatga muvofiq, muayyan boylikka ega bo‘lgan musulmon Z. beradi. Z. beruvchining mablag‘i o‘zi va qaramog‘idagilarning zaruriy ehtiyojlaridan ortiqcha bo‘lishi lozim. Bu mablag‘ga kishining jamg‘armasi, do‘konda sotiladigan narsalari, sotaman deb olib qo‘ygan narsalari, birovga bergan qarzi kiradi. Qur’oni Karimning ayrim suralarida Z. namoz b-n yonma-yon zikr etilgan. Z. yilda bir marta berilishi shart bo‘lgan xayr-ehson (sadaqa qatoriga kiradi va ayni vaqtda ibodat hisoblanadi. Z. miqdori mablag‘larning 1/40 ulushi (2,5 %)ga teng. Z.ni Z. bera olmaydigan musulmonlar olishga haqli. Z. avval qarindoshlar orasidagi muhtojlarga, bunday qarindoshlar bo‘lmasa, kambag‘al, qarzdor musofirlarga beriladi. Z.ning asl hikmati faqir va muhtojlarning hojatini chiqarmoqdir.

N. “S.M.” asarining “Islomning uchinchi ruknikim, zakotdur bayon qilmoq” degan faslida Z.ning xususiyatlari haqida quyidagicha yozadi:

Zakot o‘ldi uchinchi rukn bilgil,
Nechukkim, amr qilmish Tengri qilg‘il.

Kishi sohibnisob o‘lguncha ma’mur,
Emaskim, Haq tutubtur ani ma’zur.

Nisob o‘lsa kishi molig‘a zohir,
Ayirmoq farz keldi qirqdin bir.

N. “N.M.”da Abu Abdulloh Duniy (q.s.) haqidagi hikoyatda Z. b-n bog‘liq holatni shunday izohlaydi: “... Duniy ko‘p Qur’on o‘qur erdi. Har qachon zakot yoki sadaqa oyatiga yetsa erdi, xushhol bo‘lub egnidin bir nima chiqorib berur erdikim, eshikdin tashqari chiqorib qo‘yung, har kishi yetsa, olsun!”

N. o‘z tanbehlarida ham Z. b-n bog‘liq masalalarga alohida e’tibor qaratgan. M-n, “M.”ning Badiuzzamon mirzoga qarata yozgan 57-maktubda quyidagilarni ta’kidlagan: “Yana ulkim, devoniylarg‘a hukm bo‘lsakim, atrofdin kelgan bozurgonlarning jonibin rioyat qilsalar. Ul viloyatda “tamg‘o” lafzi mazkur bo‘lmasa. Z.ni shar’ va hukm yo‘suni bila Z.chilar alardin mustaxlas qilsalar. Z.chilar ishidin tavochi moh-bamoh, balki hafta-bahafta vuquf topib, arzg‘a yetkursalar. Juzviy jarima qilg‘onni kulliy siyosat qililsa, bok yo‘qdur, to bu ovoza olim mamolikiga yoyilsa, tujjorning to ruju ko‘prak bo‘lsa”.

Umuman, N. Z. so‘zini o‘z asarlarida umumiy boylikning qirqdan biri miqdorida har yili olinadigan diniy soliq ma’nosida ishlatadi, ammo she’rlari matnida esa Z.ning badiiy talqini ham bor.

Ad.: *Алишер Навоий. Муншаот. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Сирож ул-муслимин. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; ЎзМЭ. Жилд 1. – Т., 2002.*

B.R.

ZANAXDON (zaqan, zanax) – bag‘baqa (a. baqbaqa – qulqullash; pufak hosil bo‘lish yoki g‘abg‘ab – ikkinchi iyak, baqbaqa) Iyak ostidagi bir oz osilinqirab turgan yumshoq et. Tasavvuf she’riyatida Z. deb, solikning tabiatiga muvofiq va uyg‘un bo‘lgan ish; ilohiy tajalliylar paytida yuz beradigan teran mulohaza damlari; jamol mushohadasi bo‘lgan lazzat maqomi kabi ma’nolarni anglatadi.

N. g‘azallarida Z. so‘zining ham lug‘aviy ham tasavvufiy ma’nolari ko‘zga tashlanadi. Bunday baytlarda tashbih, tanosub va tazod kabi san’atlar mahorat bilan ishlatilganiga guvoh bo‘lamiz. Quyidagi baytda shoir o‘xshatish san’atini qo‘llab, yor zulfini parishon qilgandan keyin (ilohiy tajallilar, sirlar oshkor bo‘lganda) oshiq mahbubining zanaxdoniga bog‘langan (jamol mushohadasiga yuzlangan) ko‘nglini yorning zulfiga qaratadi. Bu yerda oshiq qalbining mahdud tuyg‘ulardan yuksak holatga, mohiyatga tomon yuzlangani, o‘rgimchakning toriga tarmashib, yuqoriga chiqayotgan paytdagi holatiga qiyos qilingan.

Chiqti zulfin solg‘ach ul chohi zanaxdondin
ko‘ngul,
Ankabut ul nav’kim, torig‘a chiqqay yormashib.

Navbatdagi baytda esa **urma zanax** – behuda gap-so‘z qilma, ma’nosidadir.

Xating sipohi chu chiqti nechukki mo‘r-u malax,
Demaki, qochmasun arbobi ishq-u urma zanax.

Bir qator N. asarlari u-n tuzilgan lug‘atlarda, **Zaqan** – *bag‘baqa, saqog‘*; **Saqog‘** – *iyak, bag‘-baqa*; **G‘abg‘ab** – *iyak, (pastki jag‘) bag‘baqa*, *saqog‘* deb ta’rif berilgan. Qaysidir o‘rinlarda bunday ta’riflar to‘g‘ri bo‘lishi mumkin. Aslida Z. – bag‘baqa, saqog‘ – iyak sifatida ikki a’zo ekani N. baytlaridan ham bilinib turadi:

Dedim zaqaning tutub, saqog‘ingni o‘pay,
Ko‘z qoshingga surtubon qabog‘ingni o‘pay.
Guldek yuzung islabon dudog‘ingni o‘pay,
Yo‘q, yo‘q-yo‘q, agar desang, ayog‘ingni o‘pay.

Z. so‘zi iboraviy birikmalarda kelib o‘ziga xos ma’nolarni ham bildiradi. M-n, Binoi zanaxdon – Bag‘baqa tuzilishi, tarhi; Zanax urmoq – 1. Behuda gaplar gapirmoq; laqillamoq, chakak urmoq; 2. Maj. Lof urmoq; Zanax chohi – Bag‘baqa chuqurchasi; Sebi zanaxdon – Bag‘baqa to‘-garagi; Go‘yi zanax – Bag‘baqa to‘garagi va h.k.

Ad: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. Ж. 1. – Т., 2006; Навоий асарлари луғати. – Т., 1972; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва таъбироти ирфони. – Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.).*

S.R.

ZANGI OTA (Zangi bobo) – Hakim otaning xalifasi bo‘lib, Ahmad Yassaviyning ustozi Arslonbobning nabirasidir. N. Zangi ota haqida: “Turkiston mashoyixidindur va ko‘p mashoyix xidmatu suhbatig‘a yetibdur. Va turk ulusida mashohirlardindur. Aning bobida ham ko‘p so‘zlar manquldur”, shaklida ta’rif bergan.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

M.A.

ZAND (POZAND, POJAND) – “Avesto”-ning sosoniy hukmdorlari tomonidan pahlaviy tilida qayta tiklangan kitobi, tafsiri. “Zand / Zind / Jand / Pozand / Pojand / ning lug‘aviy ma’nosi “bayon qilish”, “izohlash” demakdir. N.ning lirik va nasriy asarlari matnida qo‘llangan. N. 1488-y. da yaratgan mashhur tarixiy asari “T.M.A.”ning Kayoniylarga bag‘ishlanga ikkinchi tabaqasida bu suloladan saltanat qilgan to‘qqiz kishining beshinchisi sifatida shoh Gushtasp Halab mulkida hukmronlik qilgan davrida Zardushtning paydo bo‘lishi, otashparastlik dini yo‘lida zahmatlar, sa’y-harakatlar ko‘rsatishi, “Z.” kitobini tasnif qilishi va hakim ekanligi, shu sababli hukmdor va xalq e’tiborini o‘z diniga qarata olganligini ko‘rsatib o‘tadi. Shoh Gushtasp ichki siyosatida Zardusht dinini rasman qabul qilib, davlat dini maqomida fuqarolari bilan birgalikda yangi din qoidalarini o‘rgana boshlashi, hatto, tashqi siyosatida ham Zardusht dini targ‘iboti bilan shug‘ullanishi bayon qilinadi. Rum qaysariga ishonchli vakil yuborib, ularni ham bu yangi dinga da’vat qiladi. Ammo qaysar Faridun shoh ahdnomasini eslatib, Rum qaysarlari bir dinda bo‘lishini, diniy o‘zgarish qilmasligini aytib, rad qiladi. Gushtasp Faridun shoh ahdnomasini e’tirof etib, “Z.” kitobini o‘qish, o‘rganish bilan mashg‘ul bo‘ladi. 120 yil saltanatni boshqaradi. Firdavsiy “Shohnoma” asarining “O‘n ikki jang” dostonida ham shunday fikrlarni aytib o‘tgan: *“Eronda Gushtasp hukmronlik qilgan davrda Zardusht ismli payg‘ambar paydo bo‘ladi. Gushtasp o‘z fuqarolari bilan birgalikda Zardushtning yangi dinini qabul qiladi”*. Demak, N. Zardushtni hakim deb tanishtirsa, Firdavsiy payg‘ambar deb ko‘rsatadi, boshqa qator manbalarda esa uning mutafakkir-

ligi aytiladi. Nizomiy ham “Iqbolnoma” dostonining “Do‘stlarni yodlamoq” va “Dostonni yangilamoq bayoni” bobida Iskandarning zardushtiylik diniga va “Z.” kitobiga bergan talafotlarini nazarda tutib, “Z.” kitobini yodga oladi:

Sehrdan u obi Zardushtni yutdi,
“Zand”la tirik olov olamdan o‘tdi.

Baytda shoir mahorat b-n yashirin talmeh san’ati vositasida hukmdorning Istaxr shahrini bosib olib, o‘z olimlariga “Avesto”dagi tibbiyot, falsafa va ilmi nujumga oid o‘rinlarini tarjima qilib, qolgan qismini yoqib yuborish b-n bog‘liq voqealarga ham ishora qilgan. Aynan N. ning o‘zi ham bu talofat haqida “S.I.” dostonida shunday ma’lumotni aytib o‘tadi:

Chu Zardusht daf’ig‘a qildi g‘ulu,
Alar o‘tig‘a tig‘ ila urdi suv.

N. g‘azallari matnida ham “Zand”, “Pojand” atamalarini yodga olib, talmeh va tamsil san’atlari yordamida ijtimoiy fikrlariga tamsil qilgan hamda “Pojand-xovand” shaklida navoiyona uslubga xos betakror qofiyalar yaratgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Фарҳанги забони тожики. (аз асри Х то ибтидои асри ХХ). Иборат аз ду жилд. I-II жилд. А-О. П-Ж. – Москва: Энциклопедия, 1968; Навоий асарлари луғати. (Тузувчи П.Шамсиев, С.Иброҳимова). – Т., 1972; Фалсафий-қомусий луғат. Тузувчи ва масъул муҳаррир Назаров Қ. – Т., 2004; Ҳомиджон Ҳомидий. Авестодан Шоҳномагача. – Т., 2007; Очилов Э. Бир ҳовуч дур // Навоий ғазаллари ва байтлари шарҳи. – Т., 2011; Ҳакимов М. Шарқ манбаашунослиги луғати. – Т., 2013; Фирдавсий. Шоҳнома. 2-жилд. Форс тилидан Ҳ.Ғулом, Ж.Жабборов ва Назармат таржимаси. – Т., 1976; Низомий. Иқболнома. Форс тилидан Ж.Субҳон таржимаси. – Т., 2009; Ражабова Б. Ўзум сори боқма, сўзум сори боқ. – Т., 2015.*

B.R.

“ZANJIRBAND SHER” MINIATYURASI – n.shunos olim O.Sharafiddinovning “Alisher Navoiy” asarida bir necha miniatyuralar, kitobat san’ati namunalari hamda “Zanjirband sher” rasmi “Alisher Navoiyning o‘zi haqida o‘zi ishlagan rasm. Hirot. 1500 yil” degan izoh b-n keltiriladi. Keyinchalik bu rasm to‘plamlarda ham berildi. Lekin u qayerdan olingan, asl nusxasi qayerda saqlanadi, birinchi marta kim va qachon nashr qilgan, uning ostidagi sana (1500) qanday asoslarga tayanadi, rasm biror yerda tavsif etilgani va h.k. savollar mutlaqo javobsiz qolgan edi. N. hayot yo‘li. uning ijodiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda ham bu haqda hech qanday ma’lumot uchramaydi.

1929-y. Yevropada (Parij-Bryussel) ikki albom nashr etildi. Bu ikki albom Toshkent kutubxonalarida yo‘q. Ulardan biri Anand K.Kumarasvami tomonidan nashr qilingan. Bu albom Viktor Golubevning Boston nozik san’atlar muzeyida saqlanayotgan Sharq miniatyuralari kolleksiyasidan bir qanchasini o‘z ichiga oladi. Albomning 48-betida Hirot badiiy maktabi namunalari berilgan. Xat namunalari, naqsh va gullar solingan lavhalar hamda Behzod shogirdlaridan mashhur rassom va naqqosh Sulton Muhammadning o‘g‘li Muhammadiyning avtoportreti ostida “Zanjirband sher” rasmi berilgan. Hajmi 6,5x13 sm. Rasm rangli emas, g‘oyat nafis ishlangan. Uning ikki tarafiga o‘rimli naqshlar ichida gullar solingan jadval tortilgan. Chap tomonidagi yuqori burchakda gulli bezaklar orasida oq rangda “Amali Amir”, pastki burchakda esa “Alisher”, Sher rasmi ostida esa “Amali Mir Alisher” degan yozuvlar bor. Xuddi shu rasm Aminag Sakisman nashr etgan ikkinchi albomda 113-raqam ostida sahifa yuqorisida berilgan, hajmi 6,5X16,5 sm.

A.Sakisman albomning 62-63-sahifalarida Boburga tayanib N. haqida ba’zi ma’lumotlarni

keltiradi va shoirning durustgina rassom bo‘lganini yozadi. Rasm haqida to‘xtalib: “Bu asar, hech shubhasiz, Behzodning “Sher” laqabli homiysiga mansub bo‘lib, XV asr mahsulidir” – deydi.

“Hirot maktabi, Mir Alisher 1500-y., degan ma’lumotni ham A.Sakisian qayd etgandir.

N. chizgan “Zanjirband sher” rasmi Yevropada 1929-y.da ikki marta nashr qilingan. Asl nusxasi esa Amerikaning Boston shahridagi nozik san’atlar muzeyida Viktor Golubev kolleksiyasida saqlanadi.

N.ning “Tuhfat ul-afkor” qasidasida shunday bayt bor:

Qaydi zinat musqiti farr-u shuko‘hi xusravist,
Sheri zanjiri zi sheri besha kamsavlattar ast.

Tarj.: Zeb-u ziynatga hirs qo‘yish podshohlik sha’n-shavkati va shukuhini barbod etishdir, Zanjirband sherning savlati o‘rmon sheri savlatidan kamroqdir.

Bu baytda zanjirband sher obrazi tashbeh sifatida keladi. Shuning u-n ham N. bu rasmni chizganida o‘zini ko‘zda tutganmi yoki yuqoridagi baytdagi fikrlarini rassomlik san’ati vositasida ifodalamoqchi bo‘lganmi, qat’iy bir xulosaga kelish mushkul. Aytish kerakki, A.Kumarasvami albomida (36-raqam) Ustod Murod nomli naqqoshning (XVI asr) ham Zanjirband sherni chizgan rasmi mavjud.

S.G‘.

ZARDUSHT (Zaratushtra, Zaraostr) – (taxm. mil. avvalgi 618-y., Xorazm – mil. avvalgi 544-y., Balx) – Zardushtiylik dinining asoschisi. Arjasp hukmdorligi davrida maydonga chiqqan va ta’limotini targ‘ib qilgan. Ushbu dinning mohiyatida yomonlik va yaxshilik, ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi doimiy, abadiy kurash g‘oyasi yotadi. Zardushtiylikning asoslari bayon etilgan kitob Avesto hisoblanadi. O‘z ta’limoti va dinini targ‘ib etar ekan, Z. hozirgi Afg‘oniston va Shimoliy Eronda katta muvaffaqiyat qozongan. Mil. av. 544-y.da Balxda o‘ldirilgan.

N. Z. va uning ta’limoti haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lgan. Uning “T.M.A.” asarida keltirilgan ma’lumotlar shundan dalolat beradi. N. Z.ni ahamoniylar sulolasidan bo‘lgan hukmdor Gushtasp davrida faoliyat ko‘rsatgani, “Zind” kitobini tasnif qilganini yozadi. N. Z.ning dini va ta’limotini yoyishda muvaffaqiyat qozonishining asosiy sababi uning hakimligi va chekkan riyozatlarida, deb hisoblaydi. Shuningdek, u hukmdor Gushtaspning ham bu ta’limotni qabul qilganini qayd etadi. “Chun hakim erdi va riyozat jihatidan elni sayd etib erdi, Gushtosbni ham firifta qildi. Gushtasp Z. dinin ixtiyor qilib, elni ham ul millatqa kiyurdi”.

N.ning bu so‘zlari zardushtiylikning Gushtasp hukmronligi davrida rasmiy e’tirof etilganini va u davlat dini darajasiga ko‘tarilganini ko‘rsatadi. N.ning yozishicha, Gushtasp Rum qaysariga elchi yuborib, uni ham zardushtiylikka da’vat qilgan. Zardo‘sht va uning ta’limoti haqida N. “S.I.” dostonining kayoniylar sulolasiga bag‘ishlangan 12-bobida ham yozadi:

Vale tutti Zardusht oyini ul,
Majus o‘ldi istab, alar dini ul.

N. Z. dinini “gabr dini” deb ham ataydi, jumladan, Z. haqida “ul gabr dinida riyozatlar va mushohadalar tortib erdi” deb yozadi. “Gabr” so‘zi N. she’riyatida ham uchraydi. “G‘.S.” devonida quyidagi bayt mavjud:

Dayr piri bandasidurmenki nofiz hukm ila,
Aylamish yuz ming juhud-u gabr ala tarsoni zabt.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; ЎзМЭ. Жилд3. – Т., 2002; Иран. История и культура – М., 1980; Иванов М. Очерк истории Ирана. – Москва., 1952.*

Q.E.

ZARIPOV Botir (1968) – f.f.n. 2002-y. “Zoonimlarning badiiy san’at turlarini hosil qilishdagi ishtiroki” (“Alisher Navoiy asarlari misolida)” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan. Olim *ajdaho, bo‘ri, nahang, it, bulbul* kabi zoonimlar vositasida N. yigirmadan ortiq she’riy san’atlar (tazod, saj, tashbeh, tanosub) yaratganini aniqlagan. U “F.K.”dagi:

Qo‘nub ul sarv uza bulbul,
chekib gul shavqidan g‘ulg‘ul,
Bu sarv uzra ochilib gul,
anga terdin tushub shabnam, –

baytini tahlil qilar ekan, shunday yozadi: *“Bunda bulbul, g‘ulg‘ul, ochilib gul so‘zlari saj’ san’atini hosil qilgan bo‘lib, sajlangan leksemalar qatorining poetik o‘zagi bulbul zoonimi hisoblanadi”,* – deb xulosa chiqaradi. Monografiyada shoirning tabiatdagi jonzotlarni yaxshi bilgani ko‘rsatilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий асарлари тилида зоонимлар. – Т., 2007.*

E.U.



ZARIFOV Hodi Tillayevich (taxallusi Hodi Zarif. 1905 – Toshkent – 1972) – o‘zbek folklorshunosligi asoschisi, n.shunos olim. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi (1967), f.f. d-ri (1965), prof. (1967). Abu Rayhon Beruniy nomidagi Respublika Davlat mukofotining laureati. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi, o‘zbek klassik adabiyoti va o‘zbek tili bo‘yicha ko‘pgina ilmiy tadqiqotlarning muallifi. Z.H.T. o‘zbek xalq ijodini to‘plash, nashr etish, o‘rganish bo‘yicha katta ishlarni amalga oshirish b-n bir qatorda n.shunoslik taraqqiyotiga ham munosib hissa qo‘shgan olimdir. 1930-y.i N. “X.”sining Abduljamil kotib ko‘chirgan qo‘lyozma nusxasini topish va davlat fondiga topshirishda ishtirok etgan. Bu “X.”ning eng qadimgi qo‘lyozmasi bo‘lib, hozirgi vaqtda katta ilmiy ahamiyat qozongan. 1938-y.i N. tavalludining 500 yilligini nishonlash yuzasidan Hukumat yubiley komissiyasi tuzildi. Komissiya ishi 1948-y.cha davom etdi. Z.H.T. bu komissiyaga kotib qilib tayinlandi va komissiya ishida faollik ko‘rsatdi. 1940-y.i “Родоначальник узбекской литературы” maqolalar to‘plamida Z.H.T.ning “Ruboiy” degan maqolasi bosildi. Unda Z.H.T. birinchi bo‘lib N. ruboiylarining g‘oyaviy badiiy tahlilini berishga harakat qildi. 1944-y.da esa “Alisher Navoiyning ruboiy va tuyuqlari” degan ilmiy risolasi bosilib chiqdi. 1948-y. Z.H.T. tomonidan nashrga tayyorlangan N. “Aforizmlar”i bosilib chiqdi. Urush tufayli orqaga surilgan N. yubileyi o‘tkazilishi munosabati b-n Z.H.T. “Navoiy zamondoshlari” degan kitobni ham nashrdan chiqardi, bundagi kirish maqolada birinchi marta N.ning adabiy muhiti keng yoritilib, unga zamondosh o‘zbek shoirlarining asarlaridan ko‘pgina namunalar berilgan edi. Shuyili bosilib chiqqan “Ulug‘ o‘zbek shoiri” to‘plamiga esa olimning “Lutfiy va Navoiy” maqolasi kiritilgan. Bular hammasi N. ijodini, uning adabiy muhitini chuqurroq tushunishga xizmat qildi. M-n, Lutfiy va N. munosabatlari, N. ijodida Lutfiyning roli Z.H.T.gacha hech kim tomonidan maxsus o‘rganilmagan edi. Bu maqolasi b-n olim adabiy ta’sir masalalarini o‘rganishga ham hissa qo‘shdi.

1939-y.da N. ko‘rgazmasini (1940-y.da ko‘rgazma asosida Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyini) tashkil etish, 1957-y.da N. ijodini o‘rganish bo‘yicha har yil o‘tadigan an’anaviy konferensiyaga asos solish hamda uning o‘n beshga yaqin yig‘ilishlarini o‘tkazish Z.H.T.ning nomi b-n bog‘liqdir. Z.H.T. Sharq qo‘lyozmalarini, jumladan, N. asarlari qo‘lyozmalarini to‘plash va ularni davlat fondlariga olishda ham samarali faoliyat ko‘rsatdi. Z.H.T. 1957-y. O‘zFA Prezidiumi qoshida tuzilgan Navoiy qo‘mitasining doimiy a’zosi va kotibi edi. Olim shu tarzda respublikamizda n.shunoslik fanini tashkil etish va rivojlantirishga katta hissa qo‘shdi. Z.H.T.ning

1939-y. Yunus Latif tomonidan nashrga tayyorlangan N.ning “M.Q.” asari, 1948-y. G‘.G‘ulom tomonidan nashrga tayyorlangan “F.Sh.” dostoni 50–60-yy.da Porso Shamsiyev tomonidan ilmiy-tanqidiy teksti tayyorlangan “S.S.”, “F.Sh.” dostonlari nashrlariga muharrirlik qildi.

Y.E.Bertels “Navoiy” asarining yozilishida unga ko‘maklashgan o‘zbekistonlik olimlarni sanab, ularga minnatdorchilik bildirib o‘tar ekan, Z.H.T.ning nomini ham zikr etishi bejiz emas. N. merosini o‘rganishga bag‘ishlangan an’anaviy ilmiy koferensiyalarning birida olim ulug‘ shoirning birinchi devoni – “B.B.”ning tuzilgan yilini aniqlashga chuqur ilmiylik b-n yondashib, mazkur devon 1469–1482-y.lar orasida emas, 1471-y.da tuzilgan, degan fikrni ilgari surdi. Olimning N. haqidagi bir qancha maqolalari uning “Fozillar fazilati” to‘plamidan joy olgan. Z.H.T. n.shunoslarning birinchi avlodiga mansub iste’dodli olim sifatida n.shunoslikda o‘z o‘rniga ega.

Ad.: *Мирзаев Т. Ҳоди Зариф. Адабий портрет. – Т., 1967; Ўзбек халқ ижоди. Ҳ.Т.Зарифов туғилган кунининг 60 йиллигига. – Т., 1967; Ҳоди Зариф ҳақида: Библиографический очерки. О деятеллях обшественных наук Узбекистана. 1. – Т., 1977.*

Ab.H., B.M.

“ZARRA ILMI” – fanning moddalarning eng kichik bo‘laklarini o‘rganuvchi sohasi, atomistika. Zarralar haqidagi ta’limot, avvalo, qadim Yunonistonda yuzaga kelgan va Demokrit, Epikur kabi moddiyunchi-faylasuflar tomonidan rivojlantirilgan. Bu ta’limotga ko‘ra, dunyo zarralardan tashkil topgan. N.ning “V.” asaridagi:

Alimiki, bir zarra ilmida fosh,
Bidoyat sipehrida yuz ming quyosh, –

degan baytidan anglashiladiki, u fanning shu sohasidan xabardor bo‘lgan va bu ilmni dunyoning tuzilishini o‘rganish yo‘lidagi yuz ming quyoshga taqqoslagan.

N. she’rlarida ko‘p vaqt zarra tushunchasi quyosh tushunchasi, obrazi b-n yonma-yon keladi. Quyosh zarrani tutib turuvchi, harakatga keltiruvchi katta kuch sifatida talqin etiladi:

Zihi mazohir aro mehri orazingdin nur,
Quyoshdin uylaki zarrot xayli ichra zuhur.

Vujuding ayladi kavnu makon vujudin fosh,
Hamul sifatki, quyosh qildi zarrani mashhur.

Ne osig‘ har zarrag‘a ohim quyoshdek solsa o‘t,
Ul quyosh ko‘ngliga chunkim zarraye kor aylamas.

Shu b-n birga N. quyoshni zarrasiz, zarrani quyoshsiz tasavvur eta olmaydi:

Vujudung ayladi mavjud ulusnikim, bo‘lmas –
Vujud zarrag‘a mavjud bo‘lmag‘uncha quyosh.

N.ning lirik qahramoni oshiq yoriga murojaat etib, “quyoshsiz zarra mavjud bo‘la olmaganidek, sensiz ulus ham yashay olmaydi”, – deydi. Ayni vaqtda N. Z. o‘ziga xos murakkab bir olam bo‘lib, uni to‘la bilish, mohiyatini tushunish g‘oyat mushkul ekanini tan oladi. U tarjebandlarining birida zamondosh-kitobxonlariga xitob qilib, sen mendan quyoshning nimaligini aytib berishimni so‘rayapsan, lekin men qancha harakat qilmay quyosh u yoqda tursin, hatto bir zarra mohiyatini senga hal qilib berishdan ojizman, – deydi:

Quyosh yo‘qki, bir zarra mohiyatin –
Topa olmadi sa’y ila fikratim.

Ad.: *Алишер Навоий. Вақфия. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

Ab.H.

“ZAFARNOMA” – adabiy-tarixiy asarlarning bir turi. Ilk marta “Z.” nomi b-n Hamdulloh Mustavfiy 1335-y.i she’riy asar yozib, Erondagi tarixiy voqealarni tasvirlagan. Asar 75 ming bayt-dan iborat bo‘lib 25 ming bayti Eronning arablar

tomonidan qanday bosib olinganiga, 20 ming bayti arab istilosidan keyingi mo‘g‘ullargacha bo‘lgan davrga, 30 ming bayti elxoniylar hukmronligiga bag‘ishlangan.

N. o‘z zamondoshlaridan Mavlono Abdullohning ham “Z.” yozayotganini, uning bu asarni Nizomiy Ganjaviyning “Iskandarnoma” dostoniga javob sifatida yuzaga kelayotganini xabar qiladi va undan uch bayt she’r misol keltiradi. Shuningdek, “M.N.”da ustozi Mavlono Lutfiyning bir she’riy asarini o‘zbek tiliga tarjima qilganini aytadi: “Mavlononing “Zafarnoma” tarjimasida o‘n ming baytdan ortiqroq masnaviysi bor, bayozg‘a yozmag‘on uchun shuhrat tutmadi...”. N. ta’kidlaganidek, bu asar oqqa ko‘chirilmagani u-n o‘sha davrdayoq yo‘qolib ketgan ko‘rinadi. Lekin Lutfiy “Zafarnoma”si qaysi “Zafarnoma” tarjimasi ekani bizga ravshan emas.

Mashhur tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy qalamiga mansub “Z.” esa 1425-y.da yozib tamomlangan. Asarning asosiy qismi Markaziy Osiyo tarixini yoritishga, Sohibqiron Amir Temur (1336–1405) faoliyatiga bag‘ishlangan. Asarning muqaddima qismida turkiy xalqlar tarixiga oid ma’lumotlar ham bayon qilingan. “Z.”da Sohibqironning tug‘ilishidan to vafotiga qadar bo‘lgan voqealar qalamga olingan, uning buyuk lashkarboshi, davlat arbobi sifatidagi fazilatlari ko‘rsatilgan, ulkan bir markazlashgan davlat yaratish yo‘lidagi kurashi tasvirlangan.

N. Sharafiddin Ali Yazdiyning “Z.”siga katta e’tibor b-n qaragan va o‘z asarlarida tilga olgan. jumladan, bu tarixiy shaxs b-n shaxsan ko‘rishgani, uning “Z.” asari borligi haqida “M.N.”ning 2-majlisida ma’lumot beradi. Bundan tashqari, N. “T.M.A.”, “T.A.H.” asarlarini yozishda “Z.”dan foydalangan. N.ning ushbu asarga munosabati “M.” asarida ham mavjud. Badiuzzamon mirzoga yo‘llagan maktubida u shahzodaga nasihat qilar ekan, ko‘proq kutubxonada bo‘lishni va “Z.”ni o‘qishni tavsiya etadi. N. homiyligida ijod qilib, o‘rta a.lar tarix faniga ulkan hissa qo‘shgan Mirxond, Xondamir singari olimlar ham o‘z ishlarida Yazdiy “Z.”sidan manba sifatida foydalanganlar va uning an’analarini davom ettirganlar.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. 10 жилдлик. 9-жилд. – Т., 2011; Адабиёти форс-тожик дар асрҳои XII–XIV. Қисми дуюм. – Душанбе, 1976.; Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. – Т., 1997.*

Q.E.

ZACHIN – mumtoz nasriy asarlarda an’anaviy tarzda matn ichidagi keyingi bob, yangi jumlani boshlash u-n qo‘llanadigan boshlanma so‘z. Z.lar xalq og‘zaki ijodi namunalarida keng qo‘llanib, asarga ziynat, ko‘rk bag‘ishlagan. Yozma adabiyotda muallif tilidan voqealarning qulay va qiziqarli bayon qilinishi u-n xizmat qilgan.

Z.lar tuzilishiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi: butun asarni boshlovchi saj’li gap qurilmasi va bir so‘zdan tashkil topgan boshlanma.

Bir so‘zdan tarkib topgan *alqissa, alhosil, vaqteki, ammo, chun* kabi Z.larning har biri muayyan vazifaga ega bo‘lib, matn tarkibida voqealar rivoji, mazmun yo‘nalishiga qarab qo‘llanadi. Ular asarning ichki izchilligi, uzviyligini ta’minlash, boblarni bir-biriga ulash maqsadida ishlatiladi, badiiy tasvirning ta’sirchan chiqishiga xizmat qiladi. “Alqissa” Z.i eng faol qo‘llanuvchi so‘zlardan biridir. Bu so‘z biror voqeaning yakunidan so‘ng boshqa voqea boshlanishini anglatib, bo‘lib o‘tgan jarayonlarni umumlashtirib, yakuniy xulosa yasaydi. Mazkur boshlanma ba’zida voqealar cho‘zilib, davom etayotgan o‘rinda kitobxonni sergaklantiradi, diqqatini yangilab, keyingi voqealar rivojiga yo‘naltiradi. N. ham “X.” dostonlarida mazkur Z.dan unumli foydalangan:

Butub alqissa har bir qasri oliy,
Yasaldi bog‘lari jannat misoli.

Z.larning har birining o‘z vazifasi, qo‘llanish o‘rni bo‘lib, badiiy asar tili va uslubida alohida badiiy vazifani bajaradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011.*

O.T.

ZAHIR FORYOBIY (to‘liq ismi: Zahiriddin Abulfazl Tohir ibn Muhammadi Foryobiy (1160, Foryob − 1202, Tabriz) – fors-tojik shoiri. Boshlang‘ich ta’limni Foryobda olib, Nishopurda tahsilni davom ettiradi. Fors va arab tillarini chuqur o‘zlashtiribgina qolmay, tarix, falsafa, tasavvuf, hatto matematika va astronomiya fanlarini ham o‘rganadi.

Devoni qasida, g‘azal, qit’a, ruboiy, tarkibband janrlaridagi she’rlarni o‘z ichiga oladi. Jamoliddin Isfahoniy, Mujiriddin Baylaqoniy, Xoqoniy Shirvoniy, Nizomiy Ganjaviy, Asiriddin Axsikatiy, Anvariy Abivardiy kabi shoirlarga izdoshlik qilgan. Shuning u-n ham N. “M.Q.”-da Z.F.ni ijodida majoziy ishq tarannumi ustuvor shoirlar sirasiga kiritadi. “Hiloliya” qasidasi mashhur bo‘lib, Amir Xusrav Dehlaviy, Badriddin Chochiy, Salmon Sovajiy qatorida N. ham unga tatabbu’ bog‘lagan. She’rlari sodda, ravon, rang-barang ma’nolar va badiiy san’atlarga boy. Devonida 140 ta ruboiy mavjud. E.Ochilov ruboiylaridan namunalar tarjima qilgan:

To har nafasing ushbu tiriklikdan o‘tar,
Yo‘l qo‘ymaki, u behuda yo‘qlikka ketar.

Sarmoyasi umr, axir, jahon davlatining,
Yet qadriga − kunma-kun seni tark etar...

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Гулшани адаб. Жилд 1. – Душанбе, 1975; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988; Девони Заҳир Форъёбий. – Теҳрон, 1388 (ҳ.-ш.); Заҳир Форёбий. Рубоийлар // Донишмандлар туҳфаси. – Т., 2009.*

E.O.

ZAHHOK – Eroniy xalqlari qadimiy asotir va dostonlari, “Shohnoma” va boshqa asarlarning qahramonlaridan biri. Bani Sabo qabilalaridan bo‘lgan Himyar qabilasida tug‘ilgan. Laqabi Bevarasp bo‘lgan. Bevarasp – o‘n ming ot degani. Z. o‘n ming asl otlarning sohibi bo‘lgani u-n ham shu laqabni olgan.

“Avesto”da uning nomi Aji Dahaka (Ajdaho, Ajdahor) shaklida keladi. “Avesto” rivoyatlari afsonalariga ko‘ra, Z. – Eron zaminida uzoq yillar hukmronlik qilgan 3 boshli, 6 ko‘zli ajdaho. Firdavsiy “Shohnoma”sida Z. Mardos ismli Arabiston mamlakati hokimining o‘g‘li. U Iblis qutqusi b-n otasini o‘ldirib, taxtini egallaydi. Bu paytda Eron podshohi Jamshid kibr-u g‘ururga berilib, toj-u taxtini boy beradi. A’yon-u sarkardalar Z.ni uning o‘rniga o‘tkazadilar. Iblis yana paydo bo‘lib, oshpaz sifatida Z. uning xizmatiga kiradi. U bir gal Z.ning ikki yelkasidan o‘padi va u o‘pgan joydan 2 ilon o‘sib chiqadi. N. “T.M-.A.” asarida yozishicha: “Zahhok saltanati va zulmi uzoqg‘a tortti, andoqkim el aning zulmidin ojiz bo‘ldilarkim, aning ikki egnidin andoq maraz paydo bo‘lub erdikim, og‘rig‘iga odamizod mag‘zidin o‘zga hech nima taskin bermas erdi. Ba’zi muarrixlar aning iki egnidin yilonlar chiqib, g‘izolari kishi mag‘zi erdi ham debturlar. Har taqdir bila ul har kun bu jihatdin ikki kishi o‘lturur erdi. Gunahlik kishi bo‘lmasa, chek solib, soyir xalqdin qatl qilur erdi. Sipohonda Kova ohangarning bir o‘g‘li bor erdi, bu jihattin qatl bo‘lub erdi, yana bir o‘g‘lig‘a dag‘i chek tushti. Ul betahammul bo‘lub, qichqirib, elga ko‘p ta’nlar qilib, Z.ni so‘kti. El dag‘i anga muttafiq bo‘lub, xuruj qildilar. Dag‘i Sipohon volisini o‘lturub, Z. ustig‘a yurudilar. Bag‘oyat qalin el jam’ bo‘lub, Faridunkim, ba’zi Jamshid nabirasi debdurlar, ba’zi Obidin o‘g‘lig‘akim, Tahmuras naslidin bo‘lg‘ay, nisbat qilibdurlar, ul chog‘da Z. vahmidin qo‘ychilar orasida yoshurun bo‘lur erdi, tonib, ko‘torib, Kova ohangar sipohsolor bo‘lub, temurchilar belig‘a bog‘lar saxtiyonni yig‘och boshig‘a bog‘lab, alam qilib yurub, Zahhokdin chun el ayurulub erdilar, turolmay qochti. Ammo uni qovub iliklab, Faridun ani jazosig‘a yetkurdi. Z. saltanati ming yil erdi”.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т.,*

2011; Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. – Душанбе., 1987; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988; Абулқосим Фирдавсий. Шоҳнома. – Т., 2011.; Алиакбар Деҳхудо, Луғатнома, – Теҳрон, 1998.

Muh.A.

ZEHNIY KOBULIY (XV asr, Hirot) – shoir, xattot. Hirotda tahsil olgan. N.ning shogirdlaridan bo‘lgan. Turli ilmlarni o‘rganish va xattotlikka rag‘bati kuchli bo‘lgan. Quyidagi matla’ uning ta’bi nazmidan:

Man, ki hamchun zulfi mushkinat pareshon mondaam,
Gardane kaj karda, bar ro‘i tu hayron mondaam.

Tarj.: Men mushk hidli zulfing kabi parishon ahvolga tushdim, bo‘ynimni eggancha sening yuzingga hayron bo‘lib qoldim.

Ad.: *Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. TAT. 10 jildlik, 9-jild. – T., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. Душанбе, 1988.*

E.O.

ZIYOVUDDIN YUSUF (1477, Hirot – 1544, Arp (Xuroson) – shoir, olim, xattot. Abdurahmon Jomiyning 3-o‘g‘li (Ma’lumki, u 4 o‘g‘il ko‘rgan bo‘lib, birinchisi 1 kun, ikkinchisi 12 oy, to‘rtinchisi 40 kun yashagan). Jomiy o‘g‘liga qattiq ko‘ngil bergan bo‘lib, o‘z navbatida, o‘g‘il ham otaga mehr-u oqibatli bo‘lib yetishgan. Jomiy o‘g‘lining ta’lim-tarbiyasiga katta e’tibor bergan. Asrlar davomida “Sharhi Mullo” nomi b-n o‘qitilgan mashhur tilshunos Ibn Hojibning “al-Kofiya” asariga yozgan sharhi ham Z.Y. ga bag‘ishlangan. U otasi huzurida, shuningdek, N., Abdulg‘afur Loriy, Abdulvose’ Nizomiy, Ali Safiylar qoshida hamda Hirot madrasalarida tahsil olgan. Adabiyot, riyoziyot, muammo va boshqa fanlarda tengsiz bo‘lib, shayxulislom martabasiga yetadi. Jomiy “Bahoriston” pandnomasi, dostonlaridagi nasihatga oid fasllar va “Favoyidi Ziyoiya” asarlarini o‘g‘liga bag‘ishlab yozgan. Shuningdek, “Bahoriston”, “Yusuf va Zulayho”, “Tuhfat ul-asror” asarlarida Z.Y.ga maxsus boblar ajratilgan bo‘lib, unda shoir o‘g‘liga o‘z o‘gitlarini bayon etgan.

N. “N.M.”da yozishicha, muammo qoidalariga bag‘ishlangan “Mufradot” asarini yaratganida, Jomiy uni g‘oyat ma’qul ko‘rib, o‘g‘li Z.Y.ga o‘qish u-n tavsiya qiladi. N.ning yana e’tiroficha, Z.Y. shu asar asosida muammo fanini o‘rganadi.

Z.Y. xushtab’, zarif, insonparvar, olijanob shaxs bo‘lgan. She’rlaridan ayrim namunalar bizgacha yetib kelgan. M-n:

Namedonam kase az nav’i inson,
Ki boshad az xatovu sahv ozod.
Manam on shohbozi olami quds,
Ki dar sayram xato hargiz nayaftod.

Tarj.: Ayb-u xatodan xoli kishini odamlar orasida uchratganim yo‘q. Men ham poklik olamining lochiniman – mening yo‘limda xato sira bo‘lmasligi kerak.

N. “X.M.” oxirida Jomiy vafoti tafsilotlarini yoritar ekan, “Mavlono Ziyovuddin Yusufkim, alarning arjumand farzandlaridurlar, ayog‘lari sori ko‘zlarig‘a o‘tru o‘lturub erdi. Alar qachon ko‘z ochsalar, anga iltifot yuzidin boqadurlar erdi”. Keyin N. iltimosi b-n Z.Y. o‘rnidan turadi. Bu ma’lumot xalqlarda mavjud bo‘lgan – jon berish oldidagi ilhaqlik tushunchasi b-n bog‘liq bo‘lib, N. ustozi nazdida, ana shu ma’noda mehribonlik ko‘rsatgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Абдураззоқ Самарқандий. Мажмаи баҳрайн. 2-китоб. – Т., 2008; Музаккири аҳбоб. – Т., 1993; (Изоҳлар қисми); Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе., 1988.*

E.O.

ZIJ – Q.: TAQVIM.

“ZIJI KO‘RAGONIY” / “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” (“Ko‘ragoniy yulduzlar jadvali” / “Ulug‘bek ziji” – temuriy podshoh Mirzo Ulug‘bek Samarqandda dunyodagi eng buyuk rasadxona qurdi va shu rasadxonada ilmiy kuzatishlari asosida 1437-y.da yaratilgan ilmiy asar. “Z.K.” fors tilida yozilgan; keyinchalik arab, turk tillariga tarjima qilingan. Ulug‘bekning shogirdi Ali Qushchi zij qo‘lyozmalarining keng tarqalishiga katta hissa qo‘shdi.

Ulug‘bek qurdirgan rasadxonaning ulug‘vorligi va u yozgan “Z.K.” ilmiy asarining buyuk ahamiyati haqida N. “F.Sh.” dostonining “Sultonzoda Abdulvaforis Shohg‘arib Mirzo”ga bag‘ishlangan bobda shunday hayajonli satrlarni bitgan:

Temurxon naslidin sulton Ulug‘bek
Ki, olam ko‘rmadi sulton aningdek.

Aning abnoyi jinsi bo‘ldi barbod
Ki, davr ahli biridin aylamas yod.

Valek ul ilm sori torti chun dast,
Ko‘zi ollinda bo‘ldi osmon past.

Rasadkim bog‘lamish – zebi jahondur,
Jahon ichra yana bir osmondur.

Bilib bu nav’ ilmi osmoniy
Ki, andin yozdi “Ziji Ko‘ragoniy”.

Qiyomatg‘a deguncha ahli ayyom,
Yozorlar oning ahkomidin ahkom.

N. Samarqandda bo‘lganda Ulug‘bek rasadxonasi, uning salobatini o‘z ko‘zi b-n ko‘rgan va uning yozganlarida katta haqiqat aks etgan edi.

N. bu dostondan tashqari “M.N.”da ham Ulug‘bek Mirzoni va “Z.K.” asarini hurmat va iftixor b-n tilga oladi: “Ulug‘bek Mirzo – donishmand podshoh erdi. Kamoloti bag‘oyat ko‘p erdi. Yetti qiroat bila Qur’oni majid yodida erdi. Hay’at va riyoziyni xo‘b bilur erdi. Andoqkim, zij bitidi va rasad bog‘ladi va holo aning ziji oroda shoye’dur. Bovujudi bu kamolot gohi nazmg‘a mayl qilur”.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; ЎзМЭ. “Зижи Кўрагоний”. Жилд 4. – Т., 2002; Аҳмедов А. Улуғбек Муҳаммад Тарағай. – Т., 2011.*

B.R.

ZIYOIY AHMAD (1913–1989, Qashg‘ar) – uyg‘ur klassik adabiyoti bilan hozirgi zamon uyg‘ur adabiyoti o‘rtasida ko‘prik rolini o‘ynagan shoir, dramaturg, tadqiqotchi. Z.A. samarali ijod qilgan bo‘lib, “Gul va bulbul” (1926-y., doston), “Qora kunlar. Nurli hayot” (1938-y., drama), “Xoin Vangjinvey” (1938-y., drama), “To‘zimas chechaklar” (1947, she’rlar to‘plami), “Ladah yo‘lidagi karvon” (1947, safar xotiralari), “Ilmiy obidalarimiz yaratuvchilaridan Yusuf va Mahmud” (1980, tarixiy doston), “To‘rt daf’a o‘lib, beshinchi qayta tirilgan odam” (1980, biografik roman) kabi asarlari uning adabiy merosidan o‘rin olgan. U 30 yoshidayoq yetuk olim sifatida shakllanib ulgurdi va “Madaniyat va yangi qurilish” (1943), “Yosh yozuvchilarga”(1943), “Vijdon va muhokama” (1947), “Uyg‘ur xalq adabiyotining o‘ziga xosliklari va badiiy san’at” (1954), “Uyg‘ur klassik adabiyotining taraqqiyot yo‘nalishi va adabiy samarasi” (1957), “Tarixiy meros. “Qutadg‘u bilig” to‘g‘risida” (1983), “Klassik adabiyotimizning qadimiyligi va uning xorijiy tillar ta’siriga uchrashi” (1984.), “Qutadg‘u bilig” kimniki va uning tili to‘g‘risida” (1987) singari teran maqolalar e’lon qildi. Tarjimon sifatida ham mahorat ko‘rsatib, ilk bor Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” nomli qomusiy lug‘atni arab tilidan uyg‘ur tiliga o‘girgan, so‘ngroq esa, aniqrog‘i, 1970–1980-yy.da “Ravzat us-safo”, Islom falsafasi tarixi”, “Buyuk xun imperatorligi”, “Tarixiy Rashidiy”,

Yusuf xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” (1984.), Abdurahmon Nizoriyning “Robiya va Sa’din” (1957.) kabi qator kitoblarni fors va turk tillaridan ona tiliga o‘girgan.

N.ning “X.” asaridan ta’sirlanib, mazkur asarga nazira tariqasida 51 bob, 13 ming 486 misradan iborat “Robiya va Sa’din” nomli doston hamda shu nomda opera ham yaratgan. Z.A. operada, jumladan, quyidagilarni yozgan: “Qo‘lingizdagi bu opera biz uyg‘urlarning Layli va Majnuni, Farhod va Shirini yoki G‘arib va Sanami o‘rnida ko‘riladigan Robiya va Sa’din degan uyg‘ur yoshlarlarining muhabbat gulistonida firoq va hijron shamoli dastidan xazon bo‘lib, uqubat sahrosida mahrumlik ila naqadar mashaqqat chekkanliklari va, nihoyat, ularning muhabbat yo‘lida qurbon bo‘lganliklarini ko‘rsatkuchi asardir. Ko‘p vaqtlardan beri shuni o‘ylab yuramanki, arablarning Layli va Majnuni, bog‘dodliklarning G‘arib va Sanami va boshqalarning Farhod va Shirini bor ekan, uyg‘urlarning o‘shanday sevikli qahramonlari yo‘qmi?! Bizning xalqimiz tarixiy o‘tmishida bunday voqealar bo‘lmaganmi? Men har o‘zimga shunday savol berar edim. Baxtimga, menga ham shunday maqsadga erishish muyassar bo‘ldi. Men o‘sha izlagan narsamni topdim. Uni Arabiston cho‘llaridan, Bog‘dod vodiylaridan yoki Armaniston tog‘laridan emas, balki uyg‘urlar yashagan eng qadimiy hudud – Qashg‘ar viloyatiga qarashli Fayziobod nohiyasidagi Boyto‘qay qishlog‘ida kashf qildim”.

“Robiya va Sa’din” nomli doston (1985)da Z.A. shunday satrlarni bitgan edi:

Mana Farhod-Shirin, Layli-Majnun,
Unga bog‘labdilar adiblar mazmun.
O‘tilgan bo‘lsa-da necha zamonlar,
Unutmabdi buni qissaxonlar.

Bundan tashqari Z.A. “Robiya va Sa’din” dostonida N. g‘azallaridan namunalar keltirgan. O‘zi ham N. va Nizoriy g‘azallariga muxammaslar bog‘lagan. Shuningdek, “Hazrat Navoiy va Abdurahim Nizoriy” mavzusida ilmiy tadqiqot yozgan. Shuning uchun ham Z.A.ni N. an’analarini XX asr uyg‘ur adabiyotida qayta namoyon etishga uringan tadqiqotchilardan, deyish mumkin.

Ad.: *Адабиёт энциклопедияси: атамалар, истилоҳлар, сиймолар, асарлар ва нашрлар. Жилд 1. Тузувчи: проф. Болтабоев Ҳ. – Т., 2015; ЎзМЭ. – Жилд 1. – Т., 2000.*

E.O.

ZIYRAK MULLO MUHAMMAD – XIX acp birinchi yarmida yashagan. Xorazm xattotlik maktabi vakili. N.ning “Terma devon”laridan birini chiroyli nasta’liq xati b-n ko‘chirgan. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida Inv. №6792 raqami ostida saqlanadi.

Ad.: *Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. – Т.,1991; Собрание восточных рукописей академии наук Узбекистан. VII. – Т., 1964.*

Muh.A.

ZIYRAK QUSH – OGOH INSON TIMSOLI

Dahr bog‘i aro ko‘p istamagil aysh-u tarab –
Kim, guli shu’layi g‘am, g‘unchasidur xori taab.

Sunbuli rishtalarin rishtayi maqsud dema –
Kim, ko‘ngullar qushi domig‘a erur barcha sabab.

Arig‘i ichra ushoq toshi agar inju erur,
Toyiri umrung uchun donavu su topti laqab.

Angla ziyrak qush anikim, ko‘rubon mundoq dom,
Bo‘lmag‘ay tegrasida obxo‘r-u dona talab.

Dona yeb, hosil etib fazla, najas aylamagay
Bog‘ sahnini, rioyat qilibon tarki adab.

Yo bo‘lub domg‘a muhkam, topa olmay maxlas,
Urunub, tolpinibon aylamagay sho‘r-u shag‘ab.

Chun Navoiy ko‘zi bog‘liq qush erur olam aro,
Bu chamandin anga uchmog‘ni nasib et, yo Rab!

Dunyoni qoralash, tanqid qilish – mumtoz adabiyotda asosiy o‘rin tutadi. Bu diniy-tasavvufiy qarashlar bilan bog‘liq. Unga ko‘ra, dunyoga ortiqcha mehr qo‘yish insonni Haq yo‘ldan ozdiradi, Parvardigoridan begonalashib, tubanlashuviga sabab bo‘ladi. Shuning uchun ham so‘fiyona adabiyotda dunyo ko‘pincha noz-u ishva bilan oshiqlarini yo‘ldan uradigan, lekin hech kimga vafo qilmaydigan xiyonatkor ma’shuqaga o‘xshatiladi; paranji-chachvon ichida go‘yoki sarvqad va go‘zal ko‘rinadigan, aslida esa qaddi bukchaygan, tishlari to‘kilgan qari kampirga qiyoslanadi; talabgorlarini sehr-u jod-u b-n tuzoqqa tushirib, o‘z yo‘rig‘iga yurgizadigan, xohlagan ko‘yiga soladigan jodugar, alvasti, zol, ajuza qiyofalarida tasvirlanadi. Barcha yomonlik, yolg‘on, riyo timsoli bo‘lganligi u-n ham N. boshqa bir g‘azalida dunyoni islomdagi har to‘rttala mazhab bilan uch taloq qo‘yganligini aytgan edi:

Dahr zolin to‘rt mazhab birla qildim uch taloq,
Fard qildi bori mundoq kadxudoliqdin meni.

N.ning falsafiy qarashlarini o‘z ichiga oluvchi orifona g‘azallari jumlasiga kiruvchi mazkur g‘azalda ham dunyoning yomonliklari xususida so‘z boradi, unga ko‘ngil bermaslikka, dunyo to‘rlaridan qutulishga da’vat qilinadi:

Dahr bog‘i aro ko‘p istamagil ayshu tarab –
Kim, guli shu’layi g‘am, g‘unchasidur xori taab.

“Bu dunyo bog‘ida ko‘p ham aysh-u safoga berilma: uning ko‘zlaringni yashnatguvchi gullari aslida g‘am shu’lasi, qalbingga quvonch bag‘ishlovchi g‘unchalari mashaqqat tikanidir”.

Bunda aziz umrni o‘yin-kulgi, hoyu havasga berilib, behuda o‘tkazmaslikka da’vat mavjud. Zero, Alloh huzurida inson har bir xatti-harakati, har bir aytgan so‘zi u-n hisob beradi. Umrini dunyo bog‘ida aysh-u ishratda o‘tkazgan kimsalarning qalbini qiyomatda u gullar g‘am o‘tiga aylanib kuydiradi, bag‘riga u g‘unchalar mashaqqat tikani bo‘lib sanchiladi.

Quyidagi baytda esa dunyo ma’shuqa ko‘rinishida gavdalantirilmoqda:

Sunbuli rishtalarin rishtayi maqsud dema –
Kim, ko‘ngullar qushi domig‘a erur barcha sabab.

Maz.: Dunyo otlig‘ ma’shuqa zulfining torlarini maqsadga yetkazadigan vosita b-n aldanma, – deb ogohlantiradi shoir, – ularning har biri aslida ko‘ngillar qushini ovlash uchun bir tuzoqdir.

Soch – tasavvuf she’riyatida moddiy dunyo timsoli bo‘lib keladi. Uning uzunligi – dunyoviy hoy-u havaslarning chek-chegarasizligiga, qalinligi – tirikchilik tashvishlarining son-sanoqsizligiga, halqaligi – nafs bandalari ko‘nglini ovlash uchun tuzoqqa, qoraligi – o‘ziga ergashganning qismatini qora qilishiga qiyoslanadi va hokazo. Sochning ilonga, ajdarga o‘xshatilishi ham uning ayni ma’noda dunyoga nisbati borligidan kelib chiqqan. Mumtoz she’riyatda ko‘p uchratadiganimiz – zulf asiri bo‘lgan ko‘ngillarning ma’shuqa kulgichi chohiga tushganliklari haqidagi tashbehlar-da shundan dalolat beradi.

Arig‘i ichra ushoq toshi agar inju erur,
Toyiri umrung uchun donavu su topti laqab.

Maz.: Bu dunyo arig‘i ichidagi mayda toshchalar agarda dur bo‘lganida ham aldanmaki, ular umring qushini ovlashga mo‘ljallangan suv va donalardir”.

Diqqat qilsangiz, g‘azalda dunyo o‘quvchi ko‘z o‘ngida ovchi sifatida gavdalantirilyapti. Bu ovchining oddiy ovchidan farqi shundaki, u odamlarni ovlaydi: tuzog‘ini yoyadi – lazzatlarini va’da qiladi; suv-u dona sochadi – ne’matlarini ko‘z-ko‘z etadi. Lekin ziyrak qush suv-u donaga aldanmaydi, uning ortida tuzoq borligini anglaydi:

Angla ziyrak qush anikim, ko‘rubon mundoq dom,
Bo‘lmag‘ay tegrasida obxo‘ru dona talab.

Bunda ziyrak qush – o‘zini anglagan kishi muft dona ilinjida ortiqcha yeb-ichish orqasida adab qoidalarini unutib, bog‘ sahnini najosat bilan iflos qilmaydi:

Dona yeb, hosil etib fazla, najas aylamagay
Bog‘ sahnini, rioyat qilibon tarki adab.

Yoki domga qattiq bog‘lanib qolib, keyin undan qutulish yo‘lini topolmay, urinib, talpinib, g‘avg‘o-yu to‘polon ko‘tarmaydi:

Yo bo‘lub domg‘a muhkam, topa olmay maxlas,
Urunub, tolpinibon aylamagay sho‘r-u shag‘ab.

Bu dunyoning har bir lazzati, har bir ne’mati bir tuzoq. Bu tuzoqqa tushmaslik uchun kishi naqshbandiyaning “Nazar bar qadam” qoidasida asoslab berilgani kabi har bir qadamini o‘ylab bosishi, o‘z xatti-harakatini muttasil nazorat qilib borishi kerak.

“Kalila va Dimna” asarida dunyoga ko‘ngil bergan kishining qismatini Barzuya hakim quturgan tuyadan qochib qutulmoqchi bo‘lgan bir odamning ahvoliga o‘xshatadi: u najot ilinjida “jar ustiga egilgan ikki shoxga osilib, jar yoqasiga oyoq qo‘yadi, lekin oyog‘i ostidagi indan to‘rtta ilon bosh chiqarib turgani ko‘zga chalinadi, jarning ostiga nazar tashlasa, u yerda bir ajdaho og‘zini ochib, uning tushishini kutib turganligini, yuqoriga qarasa oq va qora sichqonlar u osilib turgan shoxlarni to‘xtovsiz kemirayotganliklarini ko‘radi. Bu ahvoldan qutulish yo‘lini o‘ylab turganida undan nariroqda bir asalari uyasiga ko‘zi tushadi, barmog‘ini bolga botirib yalay ketadi, bolning shirinligi uning boshini shu darajada aylantiradiki, natijada, u o‘zining qanday ahvolda ekanligini unutadi, oyoqlarini to‘rt ilonning boshiga qo‘yganligi va bu ilonlar har onda chaqib olishlari mumkinligi, sichqonlar shoxlarni, albatta, kemirib sindirishlari, shoxlar sinsa, u ajdaho domiga tushishi muqarrarligi xayolidan ko‘tariladi. Jaholat pardasi aql nurini to‘sib qo‘yadi, oz fursat o‘tmay, jarga qulab tushib halok bo‘ladi.

Men dahshatli, chuqur jar deb bu dunyoni nazarda tutaman. Shoxlarni kemirgan oq va qora sichqonlar – kecha va kunduzdir. Ularning har ikkalasi insonlarning umrini ozaytirish, halok etish uchun uzluksiz bir-birini almashtirib turadi; to‘rt ilon – borliqning mohiyatini tashkil etgan to‘rt unsurdir; bularning birortasi o‘z muvozanatini yo‘qotsa, inson darhol mahv bo‘lib ketadi; bol – azobi ko‘p, foydasi kam bo‘lgan, odamlarni to‘g‘ri yo‘ldan ozdirib, ularga najot darvozalarini bekitgan foniy dunyodir; ajdaho – hech kim qochib qutula olmaydigan o‘limdir”.

Chun Navoiy ko‘zi bog‘liq qush erur olam aro,
Bu chamandin anga uchmog‘ni nasib et, yo Rab!

Mazkur g‘azal “X.M.”ning ikkinchi kitobi – “N.Sh.” devoniga kiritilgan. Ma’lum bo‘ladiki, u shoirning yigitlik davrida yaratilgan. Bu davrda dunyo ne’matlariga aldanish xavfi ko‘proq bo‘ladi.

“Makorim ul-axloq”da keltirilishicha, yigitlik pallasida N. riyozatga bel bog‘lab, uzlatga chekinadi, xalq suhbatidan qo‘l tortib, mashhur Suhayl xonaqosida ibodatga beriladi. “Yoshlik va yigitlik zamonida doimo darveshlar suhbatining talabgori edi, imkoni boricha bu oliy makon guruhga ixlos va muridlik qadami bilan mulozamat qilardi. Bir qancha vaqt aloqa ipini uzib, tabarruk joy bo‘lgan “Raboti Suhayl”da turdi. Xalq bilan aralashishdan etak yig‘ishtirib, fayzli vaqtlarini ibodat va riyozat ahllari bilan birga o‘tkazdi. Mamlakat jilovi Sultoni sohibqironning iqtidorli qo‘liga o‘tgandan keyin hidoyat va irshod nurlarining manbai bo‘lgan zotning ota-bobolari bu adolatli podshoh yaqinlari jumlasidan bo‘lganliklaridan ul hazratni nihoyatsiz inoyat nazarlari ostiga olib, oliy mansablarni qabul qilish va davlatni idora etish ishlariga taklif qildi.

Hidoyat yo‘lidagi Amirning sharif xotiri faqr va fano yo‘lini tutishga moyil bo‘lganlikdan harchand

bu mashg‘ulotga kirishishdan bosh tortsa ham, Sultoni sohibqiron qistashni orttira berdi...”. Lekin Navoiyning martaba va nufuzi ortib borsa-da, u sira kibr-u havoga berilmadi. Aksincha, o‘z xulqini tarbiyalash, xoksorlik va tavozeni haddi a’losiga yetkazish payidan bo‘ldi. Bu haqda Xondamir shunday yozadi: “Martaba va ulug‘likning dastlabki davridan va davlat iqbolining avvalgi paytidan boshlab, harchand hidoyat shiorli Amirning hashamat va e’tibor bayrog‘i yuksala borsa-da, tavozu’ va kamtarligi ortgandan orta bordi. Harchandki, bu saodatli zotning shavkat va ixtiyor niholi ko‘tarila borgani sari shikastanafslik va foniylikka ko‘p-dan-ko‘p urinib, o‘zini past tutish va arzimaslikdan dam urardi. Har qachon podshohi sohibqirondan o‘z holiga birin-ketin inoyat va marhamat ko‘rgan sari xilvat joyga borar, bosh yalang‘ochlab, bir miqdor tuproqni bosh ustiga sochar va aziz nafsiga undab aytardiki, dunyo martaba va hashamatlarining e’tibori yo‘q, zinhor bu martabalarning qo‘lga kirishini xudbinlik va takabburga sababchi qilma: o‘zingni tuproqqa teng tutib, mumkin qadar fuqaro va miskinlar ishini hal qilishga urin”.

Darhaqiqat, N.dagi martaba va obro‘-e’tibor b-n kibr-u g‘ururga berilib ketmaslik, dunyo degan nozaninning o‘zi quchoq ochib, yo‘lini to‘sib, qo‘lidan tortib turganda uning yolg‘onchi nozu ishvasiga uchmay, o‘zini pok saqlab qola olishning o‘zi bo‘lmaydi. Shuning u-n shoir Allohga murojaat qilib aytadiki: “Navoiy bu olamda ko‘zi bog‘liq qushga o‘xshaydi, uning dunyo makriga aldanishiga yo‘l qo‘yma, tiriklik to‘rlarini uzib chiqib, ilohiy parvoz aylashini nasib et!”

N.ning boshqa bir asari – “Munj.”da ham shunga o‘xshash fikrlarni o‘qiymiz: “Ilohi, dunyo mayli rishtasin ko‘nglumdin uz va nafsoniyat tiyralig‘ida hidoyat sham’i bila o‘zung sari yo‘l ko‘rguz!”

Ziyrak qush – N. g‘azallarida ko‘p uchrab, o‘zini anglagan kishi, ogoh inson timsoli bo‘lib keladi. Bu obraz vositasida shoir odam bolasini hushyorlikka chaqiradi. Ziyrak qush aslida Sharq adabiyotida keng tarqalgan timsollardan bo‘lib, Abu Ali ibn Sinoning mashhur “Ayniya” qasidasi, Sa’diy Sheroziyning “Guliston” pandnomasida ham uchraydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Муножот. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Т., 1948.*

E.O.

ZIKR – so‘zlash, bayon qilish, xotirlash, yod aylash, xotirdagini unutmaslik ma’nolarini anglatadigan arabcha kalima bo‘lib, Allohga yaqinlik qilish maqsadida aytiladigan vird va duolarni o‘z ichiga oladi. Tasavvufda bandani Allohga yaqinlashtiruvchi eng oson va samarali yo‘l, bu – zikr. Qur’oni Karimning saksondan ortiq yerida Allohni zikr qilish buyuriladi: “Ey mo‘‘minlar, Allohni ko‘p zikr qilinglar! Va erta-yu kech u Zotni poklab tasbeh aytinglar”. (“Ahzob” surasi, 41-42-oyatlar) Tasavvufda qalb pokligi va xotirjamligi muhim bo‘lgani u-n mutasavviflar quyidagi oyatga ahamiyat beradilar: “Ogoh bo‘linggizkim, Allohni zikr qilish b-n qalblar orom olur” (“Ra’d surasi, 28-oyat). Shuningdek, “Jannat ahli hech narsadan pushaymon bo‘lmaydilar, faqatgina dunyoda zikrsiz o‘tkazgan vaqtlaridan afsuslanishadi” hadisi so‘fiylarni davomli zikrga undagan. Shuning u-n tasavvufda bu so‘z g‘aflat va isyon – esdan chiqarishning ziddi o‘rnida tatbiq etilgan.

Z.ning eng afzali “kalimayi toyyiba” (La ilaha illalloh)dir. Kim bu kalimani ixlos b-n o‘z umrida bir marta aytsa, kufri iymonga, nopokligi pokizalikka aylanadi. Qur’oni Karimning nomlaridan biri ham zikrdir. Zikr barcha tariqatlarning asli, asosidir. Z. insonlarni haqiqiy tavhidga erishtiradigan mashaqqatli va zavqli yo‘l. U kamolot maqomlarining o‘zagi yoki tamali sifatida tasavvuf olamida xos mavqe va ahamiyatga ega. Zikr dil, fikr va tuyg‘uni Allohga yo‘naltirish, Alloh b-n mukammal shuuriy, zehniy muloqot qilishdir. Tasavvufda zikr ikki qismga ajratilgan: biri – zikri omma, ikkinchisi – zikri xos.

Z. tasavvufdagi har bir tariqatda, har bir tasavvuf ahlining nazdida barcha qoida, usul va odoblarning boshidir. Tariqat pirlari va muridlarning Z.ning foydalari haqidagi umumiy qarashlari asosan bunday bo‘lgan: Z. – shaytonga qarshi eng o‘tkir yarog‘. Qalbdan g‘am, qayg‘u

va g‘ussalarni haydab, dilga quvonch, farah va kenglik bag‘ishlaydi; Z. – tafakkur va ma’rifatning yuksalishini ta’minlar; har turli yomonliklarning ildizini quritib, nainki xato, gunohlarning ham yo‘lini to‘sadi. Shu bois N. g‘azallaridan birida:

Menga lazzat sening zikring,
menga quvvat sening fikring.
Menga ishrat sening vasling,
menga toat sening yoding,

deb yozgan.

N. Z.ni ko‘ngilning joni sifatida ham ta’riflagan:

Do‘st yodi tirik asrar chu Navoiyning ko‘nglini,
G‘ayr zikri bila doim nega bo‘lg‘ay hamroz.

N. “N.M.”asarida yozishicha, Shayx Abu Said Abulxayr sulukining boshida “har kecha bir chohda bosh to‘ban o‘zini osar va tonggacha zikr aytib chiqqani u-n muborak ko‘zlaridin qon kelar ekan”. Shayx Abdulloh bin Muhammad Xarroz: “ochlik – zohidlar taomi, zikr – oriflar taomi”, – degan bo‘lsa, Shayx Abubakr Shaqqoq: “Allohning zikri b-n bo‘l. Agar holing quvvatli bo‘lsa, uning zikriga g‘arq bo‘lib ketasan. Alloh ham seni zikr qiladi”, – deb aytgan ekan.

N. “M.Q.”da “Zikr sharhida” batafsil ma’lumot beradi: “Zikr qalbning va tilning Haq yodi bilan mashg‘ul bo‘lishidir. Va ba’zan til zikr qilmay, ko‘ngil doim Haq yodi bilan mashg‘ul bo‘ladi. Zikrning yuksak darajasi zokir zikr qilingan zotda “nobud va yo‘q bo‘lmog‘idir”. To foniy bo‘lib zikr qilmaguncha maqsadga erishib bo‘lmaydi. Ammo zikr qiluvchi ko‘rgan va his qilgan sir-asrorlarini asrashi, hech kimga aytmasligi kerak. Chunki “Shoh rozin asramoqda tilin tiymag‘anning boshi boribdur va g‘ayrat va siyosat tig‘i aning nihodidin dimor chiqoribdur”. N. Xoja Abdulla Ansoriy tilidan hikoyat keltirib, Mansur Xallojning sirni oshkor qilib boshi ketgani, Abdulla Ansoriyning sirni yashirib aziz bo‘lganiga ishora etadi.

N. Qur’ondagi “Er va osmondagi bor narsalar Allohni zikr qiladi”, degan oyat ma’nosini bir qator munojotlarida ta’kidlab o‘tadi.

Zarrot aro har zarraki bor, zikringga zokir,
Amtor aro har qatraki bor, hamdingga go‘yo.

N. dunyodagi zarralarning har bir zarrasi Haq zikriga zokir-u, yomg‘irlarning har bir qatrasi Uning hamdiga go‘yo ekanini aytib o‘tar ekan, ayrim baytlarida bu olamni Haqni zikr qilgani unigina yaxshi ko‘rishini, yo‘qsa, bu olam va undagi bor narsalar do‘zaxning o‘tidek unga azob berishini ham ta’kidlab o‘tadi:

Navoiy xush ko‘rar olamni oting zikridin, yo‘qsa,
Anga do‘zax aro o‘tdekdurur dunyovu mo fiho.

N. quyidagi baytda ham Haq zikri b-n yashashini oshkor aytgan:

G‘ayr zikrin oshkora qilsa lol o‘lsun tilim,
Qaysi bir til hamki zikring oshkoro aylasa.

Ya’ni Haqdan boshqasini zikr qilsam tilim lol bo‘lsin. Shuningdek, qaysi bir tilki, riyokorlarcha zikringni oshkor etsa, bunday til ham lol bo‘lsin (tutilsin).

N. Z. aytishni poklanish va komillik sari tashlangan qadam, deb bilgani u-n ham asarlarida bu mavzuga qayta-qayta murojaat etadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Саййид Жаъфар Сажжодий. Фарҳанги истилоҳот ва табъироти ирфоний. – Теҳрон, 1370 (ҳ.-ш).*

I.H.

ZINDA PILI JOMIY – Q.: Ahmadi Jomiy.

ZOBULISTON (ZOBUL) – Seyistondagi shahar va viloyat. Firdavsiy “Shohnoma”siga ko‘ra, Som, Zol, Rustam kabi pahlavonlar navbati b-n hukmronlik qilgan afsonaviy mamlakat.

Ular o‘z mulklarini obod qilib, tinchlik-osoyishtaligini ta’minlaganlar. Ba’zan bu mamlakat Guliston deb ham ataladi. Eron shohlari da’vatiga ko‘ra, Som, Zol va Rustam dushmanlarga qarshi janglarga jo‘nar, g‘alaba b-n yana o‘z mulklariga qaytar edilar.

N. “S.I.” dostonining qadimgi Eronning kayoniylar sulolasi tarixiga bag‘ishlangan 12-bobida shunday yozadi:

Yana mulk uza tutti Bahman qaror,
O‘churdi zalolat o‘tidan sharor.

Agar Zobulistong‘a soldi futur,
Vale Bayti Maqdasqa berdi surur.

N.ning “T.M.A.” asarida ham Z. bir necha marta tilga olinadi. M-n: “Afrosiyob urushida Girshosp favt bo‘ldi va Zoli Zar Zobulistondin cherik tortib kelib, Afrosiyobni Erondin chiqardi”. Kayoniylardan Gushtosp davrida Arjasp binni Afrosiyob Eronga qarshi qo‘shin tortadi. Gushtosp unga qarshi Rustamni yo‘llamoqchi bo‘ladi, lekin u Z. dan kelmaydi. Bahman taxtga o‘tirganda esa otasi Isfandiyorning qasosi u-n dastlab Z.ga – Rustamga qarshi yurish qiladi va h.k.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988.*

E.O.

ZODI ROH (ROHILA) – yo‘l ozig‘i. N. asarlarida ham sayri sulukdagi ma’naviy oziq ma’nosida tushuniladi. Tasavvuf ilmida solik u-n zarur bo‘lgan ma’naviy vazifalar va ularning natijasida erishilgan hol va maqomlar sharhlangan. Ular tavba, zikr, shukr, tavoze’, tavakkul va h.k. N. asarlarida ham bu xususda ba’zan ishoratlar bo‘lsa, goho bevosita ilmiy-nazariy qarashlar bildiriladi. Jumladan, shoir “M.Q.” asarida tavakkulni nafs tazkiyasida muhim ozuqa sanab, shunday deydi: “Tavakkul Haq yo‘lida vosita asbobin raf’ qilmoqdur va vasila hijobin daf’ qilmoq. Va sabtlarg‘a miyonchiliqdin uzr qo‘lmoqdur va sabab va uzrsiz musabbibqa banda bo‘lmoqdur. Taqdir quti bozusi ollida sabab rishtasi churuk va qazo mash’ali partavi qoshida vosita uchquni o‘chuk. Tavakkul ahlikim, maqsud vodiysig‘a qadam qo‘yubdurlar yo‘l zodi Haq xoni ehsonidin bilibdurlar”. Bu kabi fikrlar lirikasida ham ko‘zga tashlanadi:

Ne solikkakim, dasht etib jilvagoh,
Tavakkulni aylab anga zodi roh, –

deya devonida ham tavakkulga alohida e’tibor qaratadi. Haqiqatan, ma’naviy yo‘lchi u-n ruhiy tarbiyada muhim hollardan biri tavakkuldir. Hamma moddiy va ruhiy ehtiyojlarni barini Alloh taolodan so‘rash. Ibnul vaqtga aylanish demak. Tiriklik g‘amini, kelajak qayg‘usini qilmaslik tavakkuldir. Tavakkulga erishgan solik rizo, shukr kabi hollarga yuksaladi. Ma’lumki, ruhiy tarbiyada maqsud-u matlab – fanodir. N. buni chuqur anglagan va asarlarida adam yo‘lida Z.R. fano ekanligidan botbot bahs etadi:

Bir zarra og‘zi ramzini har kimki angladi,
Yo‘li adam tariqidur-u zodi rah – fano.

“L.T.” dostoni bevosita nafs tarbiyasi badiiy sharhlangan asar sanaladi. Unda ham ma’naviy karvonda murid u-n zarur ozuqalar bir-bir ko‘rsatib berilgan. N., ayniqsa, eranlar fazilat-u xislatlardan so‘z ocharkan, shunday deydi:

Bo‘yla vodiy qat’ida beishtiboh,
G‘amni etmishlar eranlar zodi roh.

Yo‘l g‘ami kelmish eranlarning ishi,
Yo‘lda g‘amsizni kishi demas kishi.

G‘amdin aylarlar eranlar shodlig‘,
Bu muqayyadlig‘ durur ozodlig‘.

Allohning valiy qullari eranlar uchun bu uzun va qattiq yo‘lni bosib o‘tishda Z.R. – g‘amdir.

G‘am, iztirob, dard insonning tarbiyachisi ekanligi aytiladi. N. esa uni Z.R., ya’ni tariqatda yo‘l ozuqasi darajasiga ko‘taradi. Ulug‘ shoir asarlarida ma’naviy hollar, maqomlar rang-barang ifodalarda talqin qilinadi. Biroq ularni jamlasang, ma’lum bir tizim paydo bo‘ladi. Xuddi shunday Z.R. masalasida ham. Yo‘l so‘nggida solik barchasidan forig‘ bo‘ladi:

Ya’ni bu yo‘l zodidur bezodlig‘,
Zodu to‘sha qaydidin ozodlig‘.

Nafsi sofiyaga yuksalgan solik har qanday Z.R.dan ozod bo‘ladi.

N. asarlarida solik u-n ma’naviy ozuqa Z.R., yo‘l zodi, yo‘l yarog‘i birikmalari bilan ham keladi.

Yuz adam mulkiga qo‘ydum, kelki,
istaydur ko‘ngul
Bu uzun yo‘l zodi ko‘z tikmak
yuzungga bir zamon.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011;Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005; Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. – Д., 1987. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Жилд 1. – Т., 1983.*

Z.R.

ZOL – I. Firdavsiy “Shohnoma”si va unga ergashib yozilgan “Bahmannoma”, “Jahongirnoma”, “Barzunoma” va boshqa asarlar qahramonlaridan biri. U Zoli Zar, Daston deb ham ataladi. Z. – qari, keksa, Zoli Zar – oq sochli qariya, Daston – makr, hiyla (bu yerda Z.ning makr qurboniga aylangani ko‘zda tutiladi).

Z. haqida N.ning “T.M.A.” asarida ham so‘z boradi. Jumladan, Z.ning Eron shohlaridan Manuchehr davrida tavallud topgani haqida xabar beradi. Z.ning otasi Som Narimon Manuchehrning lashkarboshisi edi. Afrosiyobni Eron tuprog‘idan Z. o‘zi to‘plagan sipoh b-n surib chiqargani xususida fikrlar borligini aytadi. Zob binni Tohmosp xizmatida bo‘lib, mulk tinchligini saqlash va uni obod qilishda unga yordam bergani haqida yozadi. Z. Girshospning ham lashkarboshi bo‘lgan. Afrosiyobga qarshi urushda Zobulistondan qo‘shin tortib kelib, uni Eron mulkidan surib chiqargan.

II. So‘z ko‘hna dunyo, eski falakning sifati bo‘lib keladi hamda asosan jodugar, hiylagar kampir, yosuman, ko‘pni ko‘rgan qariya ma’nosini bildiradi. M-n, “F.Sh.” dostonida Xusrav Parviz tomonidan Farhodni makr-u hiyla tuzog‘iga tushirish u-n yollangan jodugar kampirni N. “Zoli makkora”, “Qadi ikki bukulg‘an pir zole” sifatlari b-n zikr etadi. Z. N. boshqa asarlarida ham uchraydi:

Chun jadyin sog‘di charx zoli,
Sut qatralarin oritti holi?

Ul sut bila san’at aylabon zol,
Ko‘rguzdi panir qursi filhol...

Bu voqea ichra notavon Zol,
Andinki degaylar o‘ldi badhol...

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988; Абулқосим Фирдавсий. Шоҳнома. – Т., 2011.*

E.O.

ZOLI ZAR – N. “H.A.” dostonning “Sultonlar zikri” nomli bobida mahorat b-n yaratgan ona obrazi. Bu obraz vositasida N. onalarning tabiiy haq-huquqlarini hamda adolat tantanasini poetik talqin qilgan. Urush bois yolg‘iz o‘g‘lidan ayrilgan keksa ona adolat izlab, Shoh G‘oziydan o‘g‘lining xun bahosini talab qiladi va qoziga murojaat qiladi. Qozining ikki guvoh haqidagi talabiga ona ziyraklik b-n: “ikki guvoh sening

insof va adolatingdir", – deb javob beradi. Onaning donolik b-n aytgan ramziy ikki guvohini Shoh G‘oziy ham, qozi ham tan oladi. Sulton esa adolatni o‘zidan ustun qo‘yadi va qozi hukmiga bo‘yin egadi. Sultonning bu adolati bois ona diyat (diniy qoidaga ko‘ra birovni o‘ldirganlik u-n to‘lanadigan qon bahosi, xun puli)ni tanlaydi. Adolat sabab Shoh G‘oziy jabrdiyda onaga yuksak himmat va hurmat ko‘rsatadi, ona esa boyib ketadi va xalq orasida esa "Zoli zar" – Tilla kampir nomi b-n mashhur bo‘ladi. Shoir ushbu ona timsolida o‘zining adl, adolat hammaga barobardir, degan ezgu hamda umumbashariy g‘oyalarini tarannum qilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Ражабова Б. Оналар билан суҳбат. – Т., 2014.*

B.R.

ZOT (ar.) – Alloh; ega, sohib; mohiyat, bir narsaning asli, asosi; shaxs, ulug‘ zot; inson tabiati, shaxsiyat; kelib chiqish, nasl-nasab.

N. asarlarida ko‘pincha Z. so‘zi orqali, asosan, Alloh nazarda tutiladi va uning sifatlari zikr qilinadi.

Aqli Kull hayratda zoting bobida,
Zot yo‘q, har bir sifoting bobida.

N. "H.A." da Xoliq hamdiga to‘xtalar ekan, Unga hamd aytish mutlaqo zarurligini va barcha zarralar uning Zotiga hamd aytuvchi, Tangri Zotining yagonaligi quyoshdek ma'lum, zarradan ko‘p, quyoshdan ham yorug‘ ekanini ta'kidlaydi.

Hamd angakim vojibi bizzot erur,
Homid aning zotig‘a zarrot erur.

Vahdati zotig‘a quyoshdek tonuq,
Zarradin afzunu quyoshdin yoruq.

Bir qator she'rlarda Z. orqali Muhammad (s.a.v.)ga, Uning pokiza nasabiga va eng ulug‘ inson ekanligiga, shuningdek Me'roj bilan bog‘liq g‘azallarda hazrat Payg‘ambarimiz (s.a.v.)ning farishtalar tomonidan e'zozlanishi kabi voqelarga ishora qilinadi:

Ajab farxunda zote senki, Odam
Mubohot aylagay sendek o‘g‘uldin.

Ey musallam, sanga har yaxshi sifot,
Bu sifoting bila yo‘q sen kibi zot.

Xoki poyingni maloyik qildilar toji sharaf,
Alloh-Alloh, kim ko‘ruptur bu sifat zoti sharif.

Z.ning ko‘p ma'nolilik jihatlaridan yana biri shuki, inson tabiati va shaxsiyatiga va shaxsiyatdagi fazilatlarga ishora qiladi. N. ustozi va yaqin birodarlaridan biri Sayyid Hasan Ardasherni ta'riflab shunday yozadi: " ... ammo adab va hilm va tavozu' va hayo zotlarig‘a aningdek g‘olib ermishkim..."

"N.M."da esa Shayx Mahmud Bihoriyga quyidagicha, ta'rif beradi: "...karomotu xavoriqi odot andin ko‘p zohir bo‘lur erdi va bazl (in'om, ehson, hadya, baxshish; saxiylik) zotida g‘olib erdi".

Z. boshqa so‘zlar b-n birikib, o‘ziga xos ma'no tashiydi. Jumladan, bizzot – shaxsan, bevosita; zotida – aslida; Farxundazot – baxtli kishi; Ismi zot – atoqli ot, Alloh; Tiyrazot – jaholatda, qorong‘ulikda qolgan kishi; Karih uz-zot- yoqimsiz, xunuk, jirkanch, asli yomon. Kunhi zot – biror kishining asli, mohiyati; Zoti yuksak – nasabi toza, nasabi baland; Oliyzot – zoti oliy, yuksak martabali; Pisandida zot– e'tiborli, izzatli kishi va h.k. M-n, "Ya'qub Mirzo – turkman salotinida aningdek pisandida zotlig‘ va hamida sifotlig‘ yigit oz bo‘lg‘ay. Darveshsifat va foniyvash erdi...".

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

S.R., Z.R.

ZOHID – zuhd-u taqvo egasi. Dunyoviy ishlardan yuz o‘girib, toat-ibodat b-n mashg‘ul bo‘lgan kishi. Ba’zi zohidlar shariatning zohirini ushlab, botinidan bexabarligi u-n ham tanqidga nishon bo‘lgan. Aslida zuhd va Z.lik tasavvufning ma’lum bosqichlari bo‘lib, ijobiy hodisalardan sanalgan. Sahobalardan Abu Xallod (r.a.) Payg‘ambar (s.a.v.)dan quyidagi hadisni naql etgan: “Dunyoga nisbatan zohid bo‘lgan va zuhd haqida pand-nasihat qilish fazilatiga ega bo‘lgan bir kishini ko‘rgan paytingizda unga yaqinlashing. Chunki u hikmatli so‘z aytadi”. Aynan ana shunday da’vatlar so‘filarni Z.likka undagan. Ibn Sinoga ko‘ra, “dunyoning zavq va ne’matlaridan yiroqlashgan kimsaga Z.; nofila ibodatlar, turli duo va boshqa ibodatlarga o‘zini bag‘ishlagan kishiga obid” derlar.

N. “N.M.”da mashoyixlarning bir qator zuhd va Z.lik haqidagi hikmatli so‘zlarni keltirib o‘tgan. Jumladan, Shayx Muhammad Vose’ demishki: “bu dunyoda zohid bo‘l va hech kishidin tama’ qilma, to barcha xalq sanga muhtoj bo‘lg‘aylar, mundoq bo‘lg‘andin so‘ngra lojaram sen g‘aniy va podshoh bo‘lg‘aysen va dunyoda mundoq bo‘lg‘on oxiratda ham podshohdur”. Shayx Yahyo b. Mu’oz Roziy aytgan: “zohidlar dunyo g‘urabosidurlar va oriflar – oxirat g‘urabosi”. Shayx Abdulloh bin Muhammad Xarroz deydiki: “ochlik – zohidlar taomi, zikr – oriflar taomi”.

N. ba’zi shayxlar haqida: “olim va zohid erdi”, “zohid va mutavarri’” (parhizkor) erdi”, “zohid va muttaqiy kishi ermish”, degan ta’riflar beradi. Shuning u-n ham N. g‘azallarida ikki qiyofali zohid ko‘zga tashlanadi. Biri – haqiqiy dinparast Z. Ikkinchisi – ishqdan bexabar, haqiqatni anglamaydigan, faqat jannat umidida ibodat qiladigan, riyokor va zohirparast zohid. Shoir asarlarida aynan riyokorlari tanqid qilinadi. N.ning quyidagi ruboiysida zohirparast Z.ga hur, o‘ziga jonona, Z.ga jannat-u o‘ziga mayxona kerakligi aytilib, lirik qahramon va mayxonada soqiy-u maydan (murshid-u ishqdan) bahramand bo‘lishni orzu qiladi.

Zohid, senga hur, manga jonona kerak,
Jannat sanga bo‘lsun, manga mayxona kerak.
Mayxona aro soqi-yu paymona kerak,
Paymona necha bo‘lsa to‘la, yona kerak.

N.ga ko‘ra, Z.likning darajasi va shartlari bor. Shu shartlardan eng muhimi dunyoga ko‘ngil qo‘ymaslik, ibodatning ixlos ila bajarilgani, zuhdning ishq b-n omuxta bo‘lganidir. Ishqdan xoli Z.lik, tuzsiz taomga o‘xshaydi.

Zohid o‘ldum deb, Navoiy, ishqni tark etmakim,
Bo‘lmasa ul sho‘r, tuzsiz luqmadur zuhdi faqat.

N.ning Z. haqidagi qarashlarini o‘rganish, uning she’rlarini to‘g‘ri tushunishimizga yordam beradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Саййид Жаъфар Сажжодий. Фарҳанги истилоҳот ва табъироти ирфоний. – Теҳрон. 1370 (ҳ.-ш.); Абдулкарим Қушайрий. Қушайрий рисоласи. – Истанбул. 1991.*

S.R.

ZOHIDOV Vohid – (1914.14.12–1983.19.07., Toshkent) – yirik o‘zbek adabiyotshunosi, publitsisti, falsafa fanlari d-ri. O‘zbekiston davlat mukofoti sovrindori. “O‘zbek adabiyoti tarixidan” (1961), “Inson va zamon sadosi” (1961), “Donolar davrasi” (1973), “Hayotbaxsh badiiyat taronasi ” (1975), “Nafosat ijodkori ” (1981), “Ulug‘ shoir ijodining qalbi” (1970), “Sharqni sharaflab”, “Мир идей и образов Алишера Навои” (1971) va boshqa ko‘plab ilmiy va publitsistik asarlar muallifi. Z.V. N.ning badiiy merosini o‘rganishga ham salmoqli hissa qo‘shgan. N. asarlarining

15 jildligini, rus tilida chiqqan 10 jildligini tayyorlashda tahrir hay'ati a'zosi sifatida ishtirok etgan. "O'zbek adabiyoti tarixidan" kitobida N. ning "X." va "L.T." asarlariga alohida to'xtalib o'tgan. "X."ga bag'ishlangan "Mangu hayot xazina" maqolasida u ushbu ulkan badiiy obidaga yuksak baho beradi, xususan, asarning turkiy tilda yozilgani o'sha davr madaniy va adabiy hayotida katta voqea bo'lganini ta'kidlaydi. N.ning genial san'atkorligini, "X."ning yuksak badiiyatini, unda ilgari surilgan g'oyalarning ilg'or, o'lmas g'oyalar ekanini ko'rsatib beradi.

Z.V. "L.T." haqidagi maqolasida mazkur dostonning N. ijodida alohida o'rin tutishini, shoirning dunyoqarashi va falsafasini o'zida aks ettirishini qayd etadi. Muallif dostonning "Adabiy jihatdan nafis va komil, mazmunan chuqur va falsafiy" asarligiga alohida urg'u beradi. Bunda Z.V. o'sha davrdagi ayrim adabiyotshunoslar singari N. ijodining diniy dunyoqarash b-n bog'liq jihatlarini xaspo'shlash yoki uning asarlaridagi riyokor shayxlar, din ahllari tanqid qilingan o'rinlarni umuman, dinni, diniy dunyoqarashni tanqid qilish, deb talqin etishga urinmagani, masalaga xolis, ilmiy nuqtayi nazardan yondashgani diqqatga sazovor. U "Navoiy sof musulmon bo'lgan, Qur'onni chin haqiqat, ilohiy deb bilgan, Muhammadni haqiqiy payg'ambar degan", – deb yozadi va shoir asarlarida so'fiyona fikrlar borligini e'tirof etadi hamda ayni paytda, N. mazkur so'fiyona fikrlar vositasida ilg'or g'oyalarni oldinga surganini, insonni ulug'laganini ko'rsatishga intiladi.

Z.V. o'zining bu yo'nalishdagi izlanishlarini "Buyuk shoir ijodining qalbi" kitobida davom ettirdi va N. ijodining badiiy ham falsafiy-tasavvufiy jihatlarini o'rgandi. Olim N. dunyoqarashi masalasini chuqur tadqiq etdi. O'z tadqiqotlari natijasida u N. dunyoqarashi asosida panteizm yotishi haqida xulosa chiqaradi. Shu b-n birga uni boshqa so'fiy shoirlardan farqlashga, shoir dunyoqarashi va falsafasining o'ziga xos jihatlarini ko'rsatib berishga harakat qiladi, N. ijodining umuminsoniy, insonparvarlik mohiyatini ochib beradi. Z.V. qalamiga mansub "Baridin g'araz inson edi" maqolasi ham N. asarlarining insonparvarlik mohiyatini tadqiq etishga bag'ishlangan. Z.V.ning "V.", "Debocha sirlari" maqolalari "V." asarini va "X.M." debochasini o'rganishga qo'shilgan muhim hissa bo'lish b-n bir qatorda N. tarjimayi holi va ijodiy biografiyasining ayrim jihatlarini yoritishga qaratilgani b-n muhimdir. Shuningdek, har ikki maqolada ham N. va Husayn Boyqaro munosabatlariga, Husayn Boyqaro shaxsi va faoliyatiga doir fikrlar bayon qilingan. Bu o'rinda Z.V.ning faqat Husayn Boyqaroning emas, o'tmishda yashab o'tgan boshqa hukmdorlarning faoliyatlariga ham obyektiv baho berishga da'vat qilishi alohida diqqatga sazovor. Jumladan, muallif shunday yozgan: "Axir, feodal hukmdorlarning hammasini ham barcha ijobiy narsalarni yakson qiluvchi, har jihatdan zarargina keltiruvchi yomon kishilar, deb hisoblayverish mumkin bo'lavermasa kerak!" Maqolaning 1970-y.da yozilganini hisobga olsak, Z.V. ko'z o'ngimizda xolis ilmiy fikrlarini ayta olgan jur'atli tadqiqotchi sifatida namoyon bo'ladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Вақфия. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; ЎзМЭ. Жилд 2. – Т., 2002; Зоҳидов В. Ўзбек адабиёти тарихидан. – Т., 1961; Зоҳидов В. "Мир идей и образов Алишера Навоий". – Т., 1971; Зоҳидов В. Ҳаётбахш бадиият таронаси. – Т., 1975; Зоҳидов В. Улуғ шоир ижодининг қалби. – Т., 1970.*

Q.E.

"ZUBDAT UT-TAVORIX" ("Tarixlar qaymog'i") – N.ning tarixiy mavzudagi asari nomi. Bu asarning yozilish tarixi, vaqti haqida shoir "M.L."da quyidagicha ma'lumot bergan: "Bu "X." shug'lidin chun farog'at topibmen, taxayyulum geti navardin salotin ta'rixi dashtiga chopibmen, chun noma savoli zulmatidin "Zubdatut-tavorix" asodin tuzupmen, salotin o'lgan otin bu hayvon suyi b-n tirguzupmen".

Demak, N. "Z.T."ni yozishga 1485-y.dan, ya'ni "X." yozilgandan keyin kirishgan va taxminan

1485-y.da tugallagan. Bir guruh olimlar “Z.T.” deganda, “T.M.A.”ni tushunganlar. B. bir guruh esa shu vaqtgacha bizga noma’lum bo‘lgan bir asarni tushunganlar. O‘z vaqtida sharqshunos S.P.Volin bu masalaga muhim aniqlik kiritib, “Z.T.” N.ning “T.A.H.” va “T.M.A.” nomlari b-n atalgan asarlarning umumlashmasi ekanini, shu sababli bu ikki asarning kirish qismi yo‘qligini uqtirgan edi. Chindan ham bir qancha o‘rinlarda bu ikki asar birga ko‘chirilgan va birga muqovalangan. Lekin Xondamir keltirgan N. asarlari ro‘yxatida bu ikki asar mustaqil asarlar sifatida tilga olingan. Biroq afg‘on olimi V.Juzjoniy “Amir Alisher Navoiy asarlari” maqolasida shoirning “Z.T.” asarini butun jahondagi qo‘lyozma fondlaridan qidirganini, lekin topa olmaganini yozadi.

Ba’zi qo‘lyozmalarda, shu jumladan, H.Sulaymonov nomidagi Qo‘lyozmalar institutida 1964–1565-yy.da ko‘chirilgan. Inv. № 533 qo‘lyozmasining 73a-varag‘ida avtor nomidan “T.A.H.” yozib bo‘linganidan keyin shunday jumla bor: “Chun anbiyo alayhum assalom tarixi va hukamo va ibod so‘zi alo al-ijmol majkur bo‘ldi, emdi Ajam muluki zikriga shuru’ qiloli” – deyiladi. Bu yana shuni ko‘rsatadiki, “T.M.A.” N.ning “T.A.H.” asarining bevosita davomidir.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Волин С.П. Описание рукописей произведений Навои. В ленинградских собраниях. сб. “Алишер Навои”. М.–Л., 1946.*

E.O.

ZULF (f.) – Ayollarning ikki chekkasidan tushib turgan kokillari, umuman, ayollarning sochi, mahbuba, sevgilining sochi. Kokil, gajak; Z. tasavvuf adabiyotida ko‘p ishlatiladigan timsollardan biri bo‘lib, uning bir qancha ma’nolari bor. Z. jaloliy tajalliy va tariqat mushkilotlari; mutlaq jamol vahdatining to‘silishiga sabab bo‘ladigan jamoliy tajalliy va jaloliy sifat; Z. – yashirin mohiyatdurkim uni anglash va idrok qilishga hech kim qodir emas; olamning g‘aroyib suratlari; yo‘qlik olami. Z. – vahdat martabasi va Alloh taoloning zotidurki, uning sir-sinoatiga yetmoq mumkin emas. Z. – g‘aybiy huviyyat. Shuningdek, zulf qudrat va jamol tajalliysining sifati bo‘lib, u vahdatga to‘siqdir. Va so‘fiylar istilohida zulf tugal, bo‘lak narsalar – aql va his bilan idrok qilinadigan narsalar, arvohlar va jismlar, javhar va arazlarning daraja-maqomlari imkoniyatidan kinoyadir. Ayrim tasavvuf lug‘atlarida Z. – kufr zulmatidan ham kinoya deyilgan. Tasavvufda Z.ning uzunligi, beqarorligi, gajakligi, xamligi, parishonligining o‘ziga xos ma’nolari bor. M-n, Z. xamligi – ilohiy asror demak. Uning uzunligi – borliq mavjudotning kengligi. Beqarorligi – olamning o‘zgaruvchanligi. Z. gajagi – ilohiy sirlarning maxfiyligi; tariqat mushkilotlari; shahodat (ko‘z bilan ko‘riladigan, mavjud) olamida ilohiy asrorning pinhonligi. Z. halqasi – ilohiy borliqlar va ashyolarning ayri-ayri holdagi martabalari.

Ko‘rib o‘tganimizdek, Z.ning tasavvufda turli talqinlari mavjud bo‘lib, shoir nazarda tutgan ma’nosini matndan kelib chiqib, tahlil qilish lozim bo‘ladi.

Z. N. devonlarida ko‘p qo‘llangan timsollardan bo‘lib, “G‘.S.” devonining o‘zida bu atama 167 marta turli ma’nolarda istifoda etilgan. Xususan, tashbih, tanosub va tazod vositasida yaratilgan baytlar ko‘p uchraydi. N. bir baytida yor Z.ini tuzoqqa, xolini tuzoqqa qo‘yilgan donga o‘xshatib, mahbubining xolini sevgan oshiq, uning Z.iga mubtalo bo‘lsa, ajablanmaslik kerak, deydi:

Zulfig‘a tushsa Navoiy xoli shavqidin ne tong,
Domdin yo‘q chorasi har qushki,
bo‘lg‘ay dona do‘st.

Boshqa bir baytda nur va zulmat – yuz b-n zulfga o‘xshatiladi va erta-yu kech oshiq muddaosi ham shular ekani aytiladi:

Nur-u zulmatni Navoiy netar, ul yuz keraku zulf,
Kim budur ko‘nglida gar subhu gar shom tamanno.

Z. kokil va gajak ma’nosida ham keladi. “Saqolin qirqib, ikki quloq tuzig‘a zulflar oshuftahol qo‘yg‘aylar”. Quyidagi baytda kunning yuziga tun qorong‘uligi taralgan paytlarda dunyo go‘zallariga aldanib qolmaslik uqtirilgan.

Dahr sho‘xig‘a, Navoiy, sayd bo‘lma nechakim,
Kun uzori uzra tun zulfin mutarro aylasa.

N. asarlarida Z. b-n bog‘liq iboralarning rang ba rang ma’nolariga duch kelamiz. M-n, Zulfi sohir – Sehrlovchi zulf, jozibali zulf; Zulfi sunbul – Qop-qora, xushbo‘y soch; Zulfi tobdor – Toblangan, o‘rilgan soch; Zulf tobi – Soch o‘rimi; Zulf tori – Soch tolasi va hak.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2006; Навоий асарлари луғати. – Т., 1972; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истилоҳот ва таъбироти ирфони. – Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.); Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005.*

S.R.

ZULLISONAYN – (ar. – ikki til egasi, ikki tilni biluvchi kishi) – ikki tilda asar yozuvchi ijodkor. Bu ijtimoiy talab yoki biror sabab b-n yuzaga keladi. Uning tabiiy ravishda vujudga kelishida ikki yoki undan ortiq xalq vakillarining yonma-yon yashashi ham sabab bo‘ladi. M-n, islomdan keyingi davrda fors va arab ikki tilliligi vujudga kelib, ko‘pgina olim-u adiblar o‘z asarlarini shu ikki tilda yozgan bo‘lsalar (Aytaylik, Ibn Sino fors va arab tillarida ijod qilgan), so‘ng turkiy va forsiyda yozadigan shoirlar yetishib chiqdi (Hofiz Xorazmiy, Lutfiy, N., Fuzuliy, Ubaydiy, Ogahiy, Tabibiy va boshqalar). Ma’lumki, N. nafaqat o‘zbek, balki fors-tojik tilida ham Foniy taxallusi b-n samarali ijod qilgan Z. shoir hisoblanadi. U fors-tojik tilidagi ijod namunalarini yig‘ib, “D.F.”ni ham tartib bergan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida o‘zbek va tojik tillarida qalam tebratadigan shoir-u adiblarni ko‘ramiz (Fitrat, Ayniy, Hamza va boshqalar). XX asrda o‘zbek va rus tili ikki tilliligini davr o‘rtaga qo‘yadi. Umuman, Z.lik ijtimoiy hodisa sifatida tillarning o‘zaro boyishi va rivojlanishiga muhim ta’sir ko‘rsatuvchi omildir.

Ad.: *Алишер Навоий. Девони Фоний. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; ЎзМЭ. 4-жилд. – Т., 2002.*

Sh.R.

ZUL-KIFL (a.s.) – N. bu payg‘ambar haqida ixtilof ko‘pligi, ba’zilar uni Hizqil desalar, ayrimlar Ayyub (a.s.)ning o‘g‘li Bishr ekani, vaholanki, sahih rivoyatga ko‘ra Z. (a.s.), Alyasa’ ibni Axtub (a.s.)ga vasiy, ya’ni merosxo‘r edi, deb yozadi. N. Z. (a.s.) “Kafolat egasi” laqabi b-n atalishining ikki sababi borligini aytadi.

Birinchisiga ko‘ra, Z. (a.s.) Alyasa’ning o‘rinbosari sifatida bani Isroilni Tangri taolo ibodatiga dalolat qilgan, Muso (a.s.) dini rivojida va “Tavrot” hukmlarining ijrosida va ta’limida kafil inson bo‘lgan. Ikkinchi qavlga ko‘ra, Alloh taolo uni Kan’on ismli bir kofir podshohni iymonga da’vat qilishga buyuradi. Kan’on aytadiki, mendan ko‘p gunohlar sodir bo‘lgan, iymon keltirsam Tangri taolo qoshida qabul bo‘ladimi yo yo‘qmi? Agar sen Haq taolo rahmatiga kafil bo‘lsang, men ko‘ngil to‘qligi b-n iymon keltirgayman. Z. (a.s.) Kan’ong‘a kafil bo‘ldi, kafolat xati bitib berdi. Kan’on iymon keltirib, saltanatni tark etib, Alloh ibodatiga mashg‘ul bo‘ldi. Ajali yetib vafot etgach, vasiyatiga ko‘ra xatni u b-n birga ko‘madilar. Rivoyat qilishlaricha, Haq taolo payg‘ambarning kafolati jihatidan Kan’onni rahmatiga olib, jannatiga kiritadi. Va bir farishtaga bu holatni elga oshkor qilish amr bo‘ladi. Qavm ham bu holatdan ta’sirlanib, iymon keltirib, Z. (a.s.)ning risolatini (payg‘ambarligini) e’tirof qiladilar. Z. (a.s.) bir muddat qavmi hidoyatiga mashg‘ul bo‘lib, olami foniyga vido’ qildi.

Zul-kifl ishikim, Haqqa dalolat erdi,
Haq rahmatidin elga kafolat erdi.

Chun qavmning oyini zalolat erdi,
O‘tti chu zamirig‘a malolat erdi.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Носируддин Бурҳониддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. – Т., 2009; Пайғамбарлар тарихи (Исломият тарихи). – Т., 2014.*

S.R.

ZULQAVOFI’ (ar. − uch va undan ortiq qofiya) − qofiya b-n bog‘liq san’atlardan biri bo‘lib, u bayt tarkibida uch yoki undan ortiq qofiyadosh so‘zlar juftligini keltirishdan iborat. Z. she’rga alohida musiqiylik va jarangdorlik baxsh etadi. N. ijodida Z.ning betakror namunalarini uchratamiz. M-n, “L.M.” dostonidan olingan quyidagi bayt buning yorqin misoli:

Har qissada shukr sol tilimga,
Har g‘ussada sabr ber elimga.

Ushbu baytda “tilimga” − “elimga” juftligi asosiy qofiya bo‘lsa, “qissada” − “g‘ussada”, “shukr” − “sabr” juftliklari ham o‘zaro qofiya bo‘lib kelmoqda.

Z. tarse’ga o‘xshab ketadi. Lekin tarse’da birinchi misradagi barcha so‘zlarning ikkinchi misradagi so‘zlarga qofiyadosh bo‘lishi talab qilinsa, Z.da uch va undan ortiq so‘zlar o‘zaro qofiyadosh bo‘ladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2010.*

E.O.

ZULQARNAYN – Q.: ISKANDAR.

ZULQOFIYATAYN (ar. − ikki qofiyali) − yonma-yon ikki qofiya keltirishga asoslangan lafziy san’at. Bunda baytda asosiy qofiyadan tashqari yana bitta qofiyadosh so‘z keltiriladi. M-n:

K-ey bori asrori ***irfon moyili****,*
Zotingiz bu ganji ***pinhon qoyili****.*
Yonmag‘aylar ul ***talab vodisidin****,*
Qolmag‘aylar ul ***sharaf hodisidin****.*

Z. she’rning ifodaliligini oshirib, musiqiyligini kuchaytiradi. Bunday she’rlar jarangdor va ta’sirchan bo‘lishi jihatidan shoirlar bu san’atga murojaat qiladilar. O‘z navbatida, bu san’at shoirdan katta mahorat va nozik san’atkorlik talab etadi.

Badiiy san’atlarni ishlatishning ustasi bo‘lgan N. o‘z ijodida Z. san’atidan “ko‘p va xo‘b” foydalangan.

Qo‘ymasang bizni bu ***g‘aflat domida****,*
Tiyralik birla ***zalolat shomida****.*

Ko‘ksiga urub ***firoqdin tosh****,*
Yerga urub ***ishtiyoqdin bosh****.*

Bu kez Farrux ko‘nglun ***birga berdi****,*
Nekim fikrini bir ***tadbirga urdi****.*

Ba’zan bayt misralarining boshdan-oxir qofiyadosh va ohangdor so‘zlardan tashkil topganidan ularni noqis tarse’ deyish ham mumkin:

Qish ***oldorotib humumi elni,***
Yoz ***elporotib samumi yelni****.*

Z.da goh qofiyalar o‘rtasiga hojib tushib qolishi mumkin. Bunda uni Z.i mahjub deydilar. Oldingi so‘zda tajnis ishlatilsa hojibga, keyingi so‘zda qo‘llansa, radifga o‘xshab ketadi.

Hazin Farhod shug‘lin ***ayla shirin****,*
Ki topqoysen nigore ***o‘yla Shirin****.*

Bu yerda tajnis radif emas, qofiya bo‘lib kelmoqda.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1 –4-жилдлар. – Т., 2011; Раҳмонов В. Шеър санъатлари. Л., 1972;*

Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадоеъ ус-саноеъ (А. Рустамов тарж.). – Т., 1981; Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Т., 1983; Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2010; Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Т., 1979.

Y.I., E.O.

ZUMURRAD (y.) – och yashil tusli, oliy sifatli, qimmatbaho tosh, zumrad. Balxlik qomusiy olim Mahmud ibn Valining (XVII) "Bahr ul-asror" asarida keltirilishicha, Z.ning 7 navi bo‘lgan: zubbobiy (dala kalamushi tusida), rayhoniy (rayhon rangida), silkiy (lavlagi bargi rangida), zanjoriy (yashil tusda), qurrosiy (tog‘ piyozi tusida), ohuyi (ohu tusli) va sobuniy (iroqi sovun rangida). Ulardan eng yaxshisi zubbobiy bo‘lgan. Agar u sara va bequsur bo‘lsa, 1 dirhami 50 dinor, 3 dirhami 200 dinor, 5 dirhami 1000 dinor bo‘lgan. Beruniyning "Mineralogiya" asarida yozishicha, Z.ning maydalangan bir bo‘lagi za’farni daf etadi. Uni yonida olib yurgan va tez-tez unga qarab turgan kishining ko‘zlari ravshan bo‘ladi.

N. asarlarida Z. turli badiiy maqsadlarda qo‘llanadi. M-n, quyidagi baytida ko‘klamda yashillikka burkangan zamin ma’nosida kelyapti:

Bo‘yla mavsumda keraktur aysh bazmin tuzgali
Ham zumurrad rang yer, ham bodayi yoqutrang.

Z. shoir g‘azallarida ko‘proq ma’shuqaning xatini sifatlab keladi. "F.K." devonida "Zumurrad" radifli g‘azal ham mavjud:

Labing la’l-u xating, ey jon, zumurrad,
Bo‘lurmu la’lg‘a har yon zumurrad.

Ad.: *Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011; Фарҳанги забони тожики. Жилд 1. – М., 1969; Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. – Душанбе, 1987; Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик, 2-жилд. – Т.. 2006; Аҳмедов Б. Тарих сабоқлари. – Т., 1994.*

A.A.

ZUNNOR – musulmon davlatlarida yashovchi nasroniylar majburan belga bog‘lab yuradigan ma’lum bir rangdagi chilvir. Z.ning lug‘aviy ma’nosidan tashqari, tasavvufda: sevgiliga xizmat va itoat etishga azm-u qaror qilmoq; xizmatiga astoydil bel bog‘lamoq; ishq yo‘lida sadoqatli bo‘lmoq; solikning din yo‘lidagi o‘zgarmas e’tiqodi; yaqin (ishonch, e’tiqod) yo‘lidagi payravlik, sobitlik; ba’zi o‘rinlarda dunyoga ko‘ngil bermoq va "men"lik da’vosini ilgari surmoq ma’nolarida ham keladi.

N. "N.M." asarida hikoya qilishicha, ashuro kunlarida to‘la jamoatga Abduxoliq G‘ijduvoniy ma’rifatdan gapirib turgan bir payti, zohidlar suratida bir nasroniy yigit kirib keladi. Egnida xirqa yelkasida joynamoz bir chekkada o‘tiradi. Hazrat Xoja unga qaraganlarida, u Abduxoliq G‘ijduvoniydan: "Mo‘minning farosatidan qo‘rqing, chunki u Allohning nuri b-n boqadi" degan hadis mazmunining sirri nima, deb so‘raydi. U kishi javob beradilarki: "...bu hadisning sirri budurki, xirqang ostidag‘i zunnoringni kesib, iymon kelturgaysen. Ul yigit filhol zunnorin kesti va iymon kelturdi".

N. she’rlarida Z., asosan, tasavvufiy timsol sifatida keladi. Quyidagi baytlarda Z. sevgiliga sadoqat ko‘rsatmoq, ishq yo‘lida azm-u qaror qilmoq, kabi manolarda qo‘llangan.

Dayr piri xidmatig‘a, ey ko‘ngul, bel bog‘lading,
Balkim ushbu bog‘lamoqqa bor edi zunnor shart.

Ul but g‘amidin kofiri ishq o‘lg‘ali ko‘nglum,
Jon rishtalarin jam’ qilib bog‘ladi zunnor.

Z. b-n bog‘liq baytlarni tahlil qilishda, unga yondosh timsollar va ularning o‘zaro ichki, uyg‘un munosabatlarini e’tiborga olish lozimdir.

Ad: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Девони Хожа Ҳофиз Шерозий. – Бомбей. 1277ҳ. (1860м.).*

E.O.

ZUNNUN ARG‘UN (1507-y.da o‘ldirilgan) – Sulton Husayn Boyqaroning amirlaridan. Tarixiy manbalarda Zunnun arg‘un, Zunnunbek, amir Zunnun arg‘un kabi nomlar b-n tilga olinadi. Avval Abu Said mirzoga xizmat qilgan. Sulton Husayn mirzo davrida Samarqandan Hirotga kelgan va G‘ur hokimi etib tayinlangan. Keyinroq Sulton Husayn mirzo unga Zamini Dovar viloyatini ham bergan. Ko‘p vaqt davomida Husayn Boyqaroning o‘g‘li Muhammad Ma’sum mirzo nomidan Qandahorni idora qilgan.

XV asrning 90-yy.dan boshlab Z.A. va u boshliq arg‘un beklari Xurosonda siyosiy beqarorlikni yuzaga keltirishga, markaziy hokimiyatni zaiflashtirishga, o‘zaro nizolarni avj oldirishga intiluvchi asosiy kuchlardan biri bo‘lib qolgan edi. Z.A. va uning o‘g‘li Shohbek Badiuzzamon mirzoni otasiga dushman qilib qo‘yishga uringanlar. Ular shahzodani Husayn Boyqaroga qarshi gij-gijlagan. Z.A. va Shohbek Badiuzzamonning otasiga qarshi harbiy harakatlarida unga madad berganlar va Badiuzzamon tomonida turib jang qilganlar. Tabiiyki, arg‘un beklarining bu xatti-harakatlari N. boshliq ilg‘or kuchlarning intilishlariga zid edi. 1497-y.da Z.A.ning o‘g‘li Shohbek Badiuzzamonga qo‘shilib, Nishin o‘langida Husayn Boyqaro b-n urishgan. Jangda Sulton Husayn g‘olib chiqqan. N. bu urushda bevosita ishtirok etmagan bo‘lsa-da, o‘zining ayrim chora-tadbirlari b-n g‘alabaning ta’minlanishiga hissa qo‘shgan. 1498-y.da Badiuzzamon mirzo va Z.A. Husayn Boyqaroning Astrobodda ekanidan foydalanib, Hirotni qamal qilganlar. N., Muhammad Valibek, Bobo Alibek va boshqa amirlar shaharning devor va burjlarini mustahkamlab, mudofaa choralarini ko‘radilar. So‘ngra N. shaharda qoladi, boshqa beklar tashqariga chiqib jang qiladilar. Garchi ular mag‘lubiyatga uchragan bo‘lsalar-da, Badiuzzamon mirzo va Z.A. poytaxtni egallay olmaydi.

Z.A. va boshqalarning bu kabi xatti-harakatlari mamlakatga katta zarar keltirish b-n birga o‘zlarining ham boshi berk ko‘chaga kirib qolishlariga sabab bo‘lgan va oxir-oqibatda ular Sulton Husayn mirzoga bosh egishga majbur bo‘lganlar. Bu vaqtda N. olamdan o‘tgan edi. Bunda Bobur ham muayyan rol o‘ynagan. 1503-y.da Bobur Hisorga kelganda, Xisravshohning butun qo‘shini uning tarafiga o‘tgan. 1504-y.da Bobur Zunnun arg‘unning o‘g‘li Muqim arg‘undan Kobulni tortib olgan. Bu voqealar tufayli Xisravshoh, Z.A. va Badiuzzamon ilojsiz ahvolda qolganlar. Buning ustiga o‘sha paytda Shayboniyxonning Xurosonga yurish qilish xavfi bor edi. Shusababli ular vahimaga tushib, qolib Hirotga boradilar va Husayn Boyqaroga itoat etadilar. Sulton Husayn vafotidan so‘ng Z.A. Badiuzzamon mirzo huzurida sohibixtiyor bo‘lgan. O‘sha paytda bir nechta shayx va mullalar uning oldiga kelib, “Xizbulloh” laqabini berib unga “Shayboniyxon b-n urushda sen yengib chiqasan”, deyishgan. Shayboniyxon Xurosonga bostirib kirganda. Z.A. yuqoridagi so‘zlarga ishonib, u b-n jangga kirgan va mag‘lubiyatga uchrab, o‘ldirilgan.

Ad.: *Хондамир. Ҳабиб ус-сияр. – Т., 2011; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 2002; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985; Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси. – Т., 2014.*

Q.E.

ZUN-NURAYN (r.a.) – “ikki nur egasi” ma’nosini bildiradi. Bunda xalifa Usmon (r.a.)ning Muhammad (s.a.v.)ning ikki qizlariga uylanganiga ishora qilingan, shuning u-n ham Usmon ibn Affon (r.a.)ga “Zunnurayn” – ikki nur egasi nomi berilgan. N. bu xalifa madhida shunday deydi:

Ul hayo koniki nurul-ayn edi,
O‘ylakim aynayn ***zun-nurayn*** *edi...*

Kimga bergay dastkim rabbi g‘afur,
Kulbasig‘a solg‘ay andoq ***ikki nur****.*

Ad.: *Жумаева С. Ўзбек муттоз шеъриятида рақам рамзлари ва уларнинг маъно талқини. – Т., 2010.*

S.J.

ZUNNUNI MISRIY – Abul Fayz Savbon ibn Ibrohim. (796–859, Misr). Misrdagi ilk tasavvuf vakillaridan, so‘fiy shayxlaridan biri. N. ham “N.M.”da uning “oti Savbon bin Ibrohim, kuniyati Abulfayz va laqabi Zunnun” ekanini, Misrning Ixmim degan mavzeida yashaganini, imom Shofe’i rahmatullohi alayhning qabri o‘sha yerdaligini aytadi. U Imom Molik Anasning shogirdi va uning mazhabida bo‘lgan, ustozining “Muvatto” asarini undan eshitgan, fiqh ilmini chuqur o‘zlashtirgan. Mag‘riblik shayx Isrofil uning piri bo‘lgan. Undan juda ko‘p karomotlar zohir bo‘lgan. Zunnun (baliq egasi – Yunus (a.s.) ning taxallusi) Misrdan bo‘lgani uchun Misriy nisbati bilan tilga olinadi.

Z.M. so‘fiylik ta’limotini yoyish uchun Makka, Damashq, Antiokiya shaharlarini kezgan. U Imom Ahmad Hanbal, Valid bin Abdulloh, Abulhusayn Nuriy, Abu Ya’qub Hoshimiy, Abbos bin Hamza Nisoburiy, Abu Said Xarroz, Abu Abdulloh Nabojiy, Abdulloh Hozir, Ali bin Muvaffaq, Abu Amr Dimishqiy, Ibrohim bin Dovud Qassor Raqqiy, Abu Muhriz Sheroziy, Fotima Nisoburiya, Joriyai Savdo, Imra’atun Majhula kabi orif va orifalar bilan suhbat qurgan. Uning Sahl ibn Abdulloh Tustariy, Muhammad bin Hasan Javhariy, Yusuf bin Husayn Roziy va Abu Abdulloh Jallo kabi mashhur shogirdlari bo‘lgan. O‘sha davrning ba’zi olimlari tasavvufni bid’at hisoblagan, Z.M.ni mu’taziliylar ta’limotiga qarshi deb xalifa al-Mutavakkilga xabar yetkazishgan. Xalifa uni Misrdan Bag‘dodga chaqirib, bir muddat zindonband qilgan. Lekin u bilan suhbatlashgandan keyin so‘zlari, nasihatlaridan hayratga tushgan va uni ozod qilgan. Aytishlaricha, Z.M. u yerdan ozod bo‘lib, Makkaga borganida u yerda ham ma’lum vaqt qamalgan. Lekin shularga qaramasdan tasavvufga oid asarlar yozgan.

N. “N.M.” asarida Z.M.ning vafotidan so‘nggi qiziq ma’lumotlarni keltiradi: Z.M. “Janozasin elturda, benihoyat yashil qushlar janozasig‘a oyat (belgi, nishona) qilib erdilar. Andoqkim, borg‘on xaloyiq alarning ko‘lagasida erdi. Andin so‘ngra Z.M.g‘a xalq ko‘nglida qabul voqe’ bo‘ldi». So‘ng uning qabri boshidan odamlar xatiga o‘xshamaydigan g‘aroyib bitiktosh topiladi. Unda “Zunnun Allohning do‘sti va shavq tufayli Alloh yo‘lida qurbon bo‘lgan”, degan ma’no bitilgan bo‘lib, uni har qancha harakat qilgan bilan o‘chirish imkoni bo‘lmaydi. Z.M. birinchilardan bo‘lib tasavvufning “hol va maqom”laridan so‘z yuritgan. N.ning aytishicha, u “Vaqtning imomi va ro‘zgorning yagonasi va bu toifaning boshi” bo‘lgan va barcha silsilalarda uning nomi kechgan. U birinchilardan bo‘lib, “ishoratni iboratga” keltirib, tasavvuf yo‘lida “so‘z aytgan”. N. yana xabar beradiki, bu tabaqa shayxlaridan Junayd (q.s.) bu ilmga tartib berib, kitoblar yozib uni yoydi. Shibliy oraga kirib, uni minbarda aytib, hammaga oshkor qildi. Shayx Junayd shunday degan ekan:” Biz bu asrorni yoshurun uylarda va sardobalarda mahramlarg‘a aytur erdik. Shibliy minbar ustiga aytib, elga oshkor qildi”. Z.M.ning 15 ga yaqin asari bor, deb hisoblashgan. Lekin bizga uning ayrim she’riy parchalari va hikmatli so‘zlarigina yetib kelgan. Muhiddin ibn Arabiy u haqda xotira asar yozgan. Uning xotiralarida Z.M. ning nomi haqidagi ixtilofli qarashlar berilgan. 1. Z.M.ning ismi Abulfayz bin Ahmaddir. 2. Z.M. bin Ibrohim al-Ixmimiy, quraysh qabilasining mavlolaridan. Otasi Ibrohim esa Nubalidir. 3. Alfayz ismi, Zunnun laqabi. Abulfayz esa kunyasidir. 4. Zunnun kunyasidir, ismi Alfayzdir va Zunnun uning laqabidir. Hofiz Abu Nuaym Zunnunni ozg‘in, soqoli oqarmagan va oq qizg‘ish rangli odam edi, deb tanitadi.

N. Z.M. nomini “H.A.” dostonining “Riyoyi xirqapo‘shlar suluki” haqidagi to‘rtinchi maqolatida hamda “Ishq o‘ti ta’rifi” haqidagi to‘qqizinchi maqolatlarida ma’lum bir maqsadini ifodalash uchun uning nomini tilga olib o‘tadi. Shuningdek, N. mazkur asarida Z.M.ning hikmatli so‘zlaridan keltirib o‘tadi: “Allohu taolo bandasining nafsini unga xor qilib ko‘rsatishi, uni ulug‘ qiladigan har qanday narsadan ko‘ra azizroq va muhimroqdir”. “Maxfiyroq va qattiq-

roq parda – nafsni ko‘rish va unga tadbir qilish, ya’ni jilovlashdir”, “Alloh zotini tafakkur qilish nodonlik va unga ishorat qilish shirkdir. Ma’rifatning haqiqati hayratdur”.

N. “N.M.” asarida Z.M.ning quyidagi so‘zlarini keltiradi: U aytgan: uch (ma’naviy-ruhiy) safar qildim va (odamlar uchun) uch xil ilm olib keldim. Ya’ni odamlarga taqdim qildim. Avvalgi safarda shunday bir ilm olib keldimki, xos (inson)lar ham qabul qildi, omma ham qabul qildi. Ikkinchi safarda shunday bir ilm olib keldimki, xos qabul qildi va omma qabul qilmadi. Va uchunchi safarda shunday bir ilm olib keldimiki, ne xos qabul qildi va ne omma qabul qildi. Qochoq, quvg‘in va yolg‘iz bo‘lib qoldim”. Shayx ul-islom (Abdulloh Ansoriy) dediki, avval tavba ilmi erdiki, uni xos ham avom ham qabul qildilar. Ikkinchi, tavakkul va muomalat va muhabbat ilmi ediki, xos qabul qildilar va avomlar qabul qilmadilar. Uchinchi, haqiqat ilmidurki elning ilmi aql-u toqatidin tashqari erdi. Xaloyiq anglamadilar va uni inkor qila boshladilar.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Ислом. Энциклопедия. – Т., 2017; Фариддин Аттор. Тазкират ул-авлиё. –Т., 2017.*

S.R.

ZUHAL – Saturn sayyorasining Sharqdagi nomi. Yana bir nomi Kayvon. Z. yettinchi osmonda joylashgan, deb hisoblanadi va shu sababli yuksaklik, balandlik ramzi sanaladi. N. “F.Sh.” dostonidagi bir baytda Z.ni “yettinchi qo‘rg‘on posboni” deb ataydi:

Qolib yettinchi qo‘rg‘on posboni,
O‘tub chobuksuvori osmoniy.

Bunda Z.ning yettinchi osmonda joylashganiga ishora bor. “S.S.” dostonida shunday bayt mavjud:

Zuhal asbobin ayladi bir-bir,
Hinduyidekki, bo‘lsa ma’rakagir.

Baytda N. Z.ga nisbatan “hindudek” so‘zini qo‘llaydi. Sharq adabiyotida hindu qoralik, zulmat ramzi. “H.A.”dan olingan ushbu baytda ham Z.ning qorong‘ulik, zulmat timsoli sifatidagi ma’nosiga ishora qilinadi:

Sham’i Zuhal zulmatini nur etib,
Zangiyi shabrangni kofur etib.

Baytda so‘z me’roj haqida boradi va “payg‘ambar shami (nuri) Z. zulmatini nur, tun rangidagi (ya’ni qop-qora) zangini kofur (oq) qildi” degan ma’no ifodalanadi.

Z.ga qoralik, zulmatning nisbat berilishi bejiz bo‘lmay undagi yana bir xususiyatni – nahsiyatni ta’kidlashga xizmat qiladi. Z.ning voqea va hodisalarga ta’siri nahs deb hisoblanadi. N. “S.I.”da Me’rojga bag‘ishlangan bobda payg‘ambarni ulug‘lashda ana shundan foydalangan. Payg‘ambar (s.a.v.) yettinchi osmonga ko‘tarilganda, uning sharofati tufayli Z. nahslikdan qutulib saodatga erishadi:

Yettinchiga chun obir aylab samand,
Saodatdin o‘lub Zuhal bahramand.

Bo‘lub daf’ aning barcha nahsiyoti,
Qavli bo‘lub aning saodat oti.

Z. timsol sifatida N. lirikasida ham uchraydi va yuqorida aytib o‘tilgan ma’nolarda qo‘llanadi. Bunga shoirning quyidagi baytlari misolida ishonch hosil qilish mumkin.

Chun Zuhal toli’ bo‘lur xoling xayoli fitnadin,
Jonim ichra yuz ming oshubi balo izhor etar.

Yoki:

Ne shomdurki, mehr onga kofur sepmayin,
Har dam Zuhal uzori bo‘lur anda mushkbez.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамса. ТАТ. 10 жилдлик, 6-8-жилдлар. – Т., 2011.*

Q.E.

ZUHD – din va shariat taqiqlagan yomon ish, botil tushunchalardan o‘zni tiyish, nafsoniy orzu, shahvoniy lazzatlardan kechib nafsni jilovlash tajribasi demak. Z. – tarki dunyo qilish, mosivodan yuz o‘girib Allohga tomon borish yo‘li hisoblanadi. Z.ning asosiy talabi: harom va shubhali narsalardan qochish, o‘tkinchi dunyo sevgisini dildan chiqarishdir. Haqiqiy zuhdiy hayot insonni sabr-qanoat, sokinlik va rizoga o‘rgatadi.

Ahmad bin Hanbalning tasnifi bo‘yicha, zuhdning uch shakli bo‘lgan. *Birinchisi, haromni tark aylash. Bu – avom zuhdi. Ikkinchisi, halolning ham zarur bo‘lmagan qismidan kechish. Bu – xovosning (xos kishilarning) zuhdi. Uchinchisi, Alloh b-n munosabat va aloqaga to‘siq bo‘ladigan har qanday narsadan kechish. Bu – oriflarning zuhdi*.

Z. kalimasining Qur’oni Karimda uchrashi va Hazrati Payg‘ambar (s.a.v.) tomonlaridan ham ishlatilgani ilmiy adabiyotlarda aytib o‘tilgan. Naql qilinishicha, sahoba Rasuli akrom (s.a.v.)ning huzurlariga kelib, “*Yo Allohning habibi, menga shunday bir ishni ko‘rsatingki, uni bajarganimda Haq ham, xalq ham mendan rozi bo‘lsin*”, debdi. Shunda Payg‘ambar (s.a.v.): “*Dunyoga munosabatda zohid bo‘lgilki, Alloh seni sevadi, odamlarning qo‘llaridagilariga nisbatan zohidlik ko‘rsatgilki, ular seni sevgaylar”*, degan ekanlar.

N. Z.ni ta’riflaganda ilk davrlardagi olim, orif zohidlar fe’l-atvori va maslaklarini e’tiborda tutgan: “Zuhd dunyo orzularidan kechmakdur va nafs alarning mavto zahrin ichmakdur. Va mol-u joh xayoli rishtasin ko‘nguldin uzmakdur va nang-u nomus butlarin ushaturg‘a o‘zin tuzmakdur va qabul umidig‘a riyozat tariqin tutmakdur...”. “M.Q.”da “Zuhd zikrida” nomli maxsus bob mavjud. N. unda Z. va uning inson kamolotidagi mavqeyidan so‘z ochadi: “…Va shariat jodasida mardona turmoqdur. Va tariqat vodiysig‘a purdardmandona qadam urmoqdur. Va boshni riyoyi sajdag‘a indurmamakdur, balki andoq toatni xayolg‘a kechurmamakdur. Ko‘zni asramoqdur barcha nomahram yuzdin va tilni tutmoqdur barcha nomashru’ so‘zdin. Quloq karligidur molo, ya’ni mas’mu’otdin ilik tortmog‘lig‘dur barcha nomashru’otdin. Ayog‘ langligidur xaloyiq taraddudidin va nutq gungligidur so‘zda el tashaddudidin. Og‘izga savm muhridur nedinki, nafs tamannosi bo‘lg‘ay va nafsg‘a ya’s kofuridur har shay’dinki tabiat taqozosi bo‘lg‘ay. Taom qillatidur onchakim, muyassar va aning jibillati rioyatidur onchakim, maqdur. Xilvatta ulfatdur aladdavom, uzlatga mudovamatdur molokalom. Va layl qiyomig‘a muvozabatdur va zikr davomig‘a mudovamatdur”.

Ana shu Z. N. ning go‘zal axloq, komil inson tushunchalarining asosini tashkil qiladi.

N. ijodida janriy rang-baranglik g‘oya ifodasining turli-tumanligiga ham sabab bo‘lgan. Ayniqsa, lirikasida Z. haqidagi nuqtayi nazari va uning talqinlari har xil. Bir o‘rinda u zohidlikka talabgor:

Navoiy, yigitlikni qo‘y, chun qariding,
Qilib tavba, bo‘l zuhdu taqvog‘a tolib.

Aksariyat esa, Z. va zohidlik ishq va oshiqlik, irfon va oriflikka ma’lum ma’noda zidlantiriladi:

Anga halol may-u ishq dayr aro bilkim,
O‘ziga zuhdni qilmish harom men yanglig‘.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Калободий. Таъарруф (Туғилиш даврида тасаввуф). – Истанбул, 1992; Абдулкарим Қушайрий. Рисолаи Қушайрий. – Истанбул, 1991; Никельсон Р. Тасаввуфнинг пайдо бўлиш масаласи. – Истанбул, 1999.*

Z.R.

ZUHRA – Venera sayyorasining Sharqdagi nomi. Uni yana Nohid ham deb ataydilar. Diniy rivoyatlarga ko‘ra, u aslida sohibjamol ayol bo‘lib, Horut va Morut ismli farishtalar unga oshiq bo‘lib qoladilar hamda Z.ga Ismi a’zam – Allohning sirli va muqaddas ismini o‘rgatadilar. Z. Ismi a’zamni o‘qib, osmonga ko‘tarilib ketadi va porloq bir yulduzga aylanadi. Z. – falak

cholg‘uvchisi, go‘zallik, shodlig-u xursandchilik, raqs-u musiqa ramzi sifatida mumtoz she’riyatda keng qo‘llanadi.

Bu holni N. asarlarida ham ko‘ramiz. Buyuk shoir ushbu timsol vositasida ajoyib tasvirlar yaratadi. B. osmon jismlari singari Z. ham N. tomonidan “X.” dostonlarining me’roj tuni ta’rifiga bag‘ishlangan boblarida tilga olinadi. “F.Sh.” dostonining beshinchi bobida Payg‘ambar (s.a.v.)ning Buroqda Z.ga yetib borgani shunday ifoda etiladi:

Yeturgach Zuhrag‘a davlat rikobi,
Dafin yirtib qudumi ehtisobi.

Yuqorida aytilganidek, Z. mohir mutrib, musiqachi timsoli bo‘lgani u-n bu o‘rinda N. uni qo‘lida daf (doira, childirma) b-n tasvirlagan. “L.M.” dostonining to‘rtinchi bobida quyidagi bayt mavjud:

Zuhra yo‘lida tuzub navo zer,
Mutriblardek bo‘lub miyongir.

N. she’riyatida Z. go‘zallik timsoli sifatida qo‘llanishini “Masnaviy” (Said Hasanga maktub) asarida ko‘rish mumkin. Unda shoir Z.ni Sharqdagi boshqa bir nomi b-n Nohid deb ataydi:

Kamol ichra tush vaqti xurshiddek,
Jamol ichra tong boshi Nohiddek.

“M.” tarkibidagi ruboiylardan birida ham N. adresatni ulug‘lashda ushbu obrazdan foydalangan. U (ya’ni adresat) shu qadar ulug‘ki, Z. uning bazmida mutriblik qiladi:

Ey Zuhra, kelib mutribi bazmi tarabing,
Birjisdin ortibon hayovu adabing,

Olam elida Xisrav-u Xoqon laqabing
Odamga degincha xon bin xon nasabing.

Bunday misollar N. she’riyatida bu timsol o‘ziga xos o‘rin tutishini va umuman, shoirning uni qo‘llashdagi yuksak badiiy mahoratini namoyon etadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Муншаот. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ўзбек адабиёти тарихи. 5 жилдлик, 2-жилд. – Т., 1977.*

Q.E.

O‘

O‘TANOVA Sirdaryoxon Hakimjonovna – n.shunos. F.f.n. (2007), dotsent (2020). 1979-y. da Jizzax viloyatida tug‘ilgan. 2001-y.da Jizzax davlat pedagogika instituti O‘zbek filologiya fakulteti bakalavriatini, 2003-y.da Guliston davlat universitetining filologiya fakulteti magistraturasini tamomlagan. “Alisher Navoiy g‘azaliyotida rang simvolikasi” mavzuidagi nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan (2007). “Alisher Navoiy g‘azaliyotida rang simvolikasi” (2011) monografiyasi muallifi. Mazkur monografiyada rang simvolikasining adabiy matn mohiyatini ochib berishdagi o‘rni, N. lirikasida qo‘llanilgan ranglarning lirik qahramon kechinmalarini ifodalashdagi roli, shuningdek, ulug‘ shoirning badiiy mahoratidan bahs etilgan.

O‘.S.H. “Alisher Navoiy ensiklpodiyasi”ning mualliflaridan biridir.

N. hayoti va ijodi, n.shunoslik masalalariga oid maqolalari respublikamiz hamda xorij, jumladan, Ozarbayjon, Turkiya, Xitoy jumhuriyatlarining nufuzli ilmiy jurnallarida chop etilgan. N.shunoslikka bag‘ishlangan Respublika va xalqaro miqyoslardagi anjumanlarda faol ishtirok etgan.

M.A.

“O‘ZBEK-TOJIK ADABIY ALOQALARI TARIXIDAN” – taniqli n.shunos olim Ergashali Shodiyevning XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi o‘zbek-tojik adabiy aloqalari tarixiga bag‘ishlangan risolasi (1973). Unda N.ning bu davr shoirlariga ta’siri, ularning ustoz shoirga izdoshliklari, g‘azallariga yozgan tatabbu’lari, bog‘lagan muxammaslari borasida ham keng fikr yuritiladi. M-n, N.ning Yusuf Saryomiy, Muqimiy, Furqat, Rahmatulloh Vozeh, Hamza ijodiga ta’siri yoritilgan.

Ad.: *Шодиев Э. Ўзбек-тожик адабий алоқалари тарихидан (XIX аср охири ва XX аср бошлари). – Т., 1973.*

E.O.

“O‘ZBEK ADABIYOTI” – o‘zbek adabiyoti tarixi materiallaridan tuzilgan bu 4 jildlik kitob O‘zR FA TAI tomonidan nashrga tayyorlangan bo‘lib, 2-jildi N. asarlaridan tarkib topgan. Mas’ul muharrir: V.Zohidov. Muharrirlar: P.Shamsiyev, R.Majidiy.

N.ning poetik ijodidan, ilmiy-tarixiy asarlaridan namunalar keltirilgan kitob shoir hayoti va ijodi haqidagi qisqa ma’lumot b-n boshlanadi. Shundan so‘ng, “X.M.”ning 1-devoni “G‘.S.”dan 18 g‘azal, “Ey, husnungga zarrot jahon ichra tajalli, mazhar sanga, ashyo” misrasi b-n boshlanuvchi bir mustazod, “Subhidam maxmurluqdin tartibon dardi sare” misrasi b-n boshlanuvchi bir musaddas, har bandi “*Xarobot aro kirdim oshufta hol, May istarga ilgimda sing‘on safol*” bayti b-n tugallanuvchi tarji’band, 1 masnaviy (Hasbi hol), 4 qit’a, 14 ruboiy; 2-devon “N.Sh.”dan 16 g‘azal, “Koshki” radifli muxammas, 4 qit’a; 3-devon “B.V.”-dan 17 g‘azal, har bandi “Yodingni qilay harifi majlis” bayti b-n tugallanuvchi tarji’band, “H.” qasidasi, 6 qit’a, 5 tuyuq; 4-devon “F.K.”dan 13 g‘azal, “Ey ko‘ngul” radifli musamman, soqiynoma (6 qismdan iborat), 4 qit’a, 5 fard keltirilgan. Bu namunalar prof. H.Sulaymov tomonidan nashrga tayyorlangan. Kitobdan N. “X.”siga ham alohida o‘rin ajratilgan: “X.A.”, “F.Sh.”,

“L.M.”, “S.S.”, “S.I.” dostonlaridan parchalar berilgan. Ular P.Shamsiyev tomonidan nashrga tayyorlangan. Shuningdek, “L.T.” (A.Hayitmetov nashrga tayyorlagan), “M.Q.”, “X.M.”, “H.S.H-.A.”,“H.P.M.” (P.Shamsyiev nashrga tayyorlagan), “M.N.”dan (S.G‘anyieva nashrga tayyorlagan), “M.”, “V.”, “M.L.”, “N.J.” va N.ning forsiy tilda yozilgan asarlari jamlangan “D.F.”dan namunalar (19 g‘azal, “Tuhfat ul-afkor” qasidasidan parchalar, Jomiyning “Koshki” radifli g‘azaliga musaddasi, soqiynoma, Jomiy vafotiga marsiya-tarkibband, 2 qit’a, 5 ruboiy, Jomiy va Pahlavon Muhammad vafotiga ta’rix) o‘rin olgan. Kitob N. asarlarining eng sara namunalarini qamrab olgani b-n muhim manba sanaladi.

Ad.: *O‘zbek adabiyoti. “Alisher Navoiy”. 4 jildlik, 2-jild. – T., 1959.*

S.O‘.

“O‘ZBEK ADABIYOTINING ASOSCHISI” (Rus tilida. Alisher Navoiy haqidagi maqolalar to‘plami. Toshkent: Fan, 1940) – N. tavalludining 500 yilligi munosabati b-n tayyorlangan kitob. To‘plam N. yubileyi komitetining raisi A. Abdurahmonovning maqolasi b-n boshlanadi. Bundan so‘ng tilshunos olimi A.Borovkovning “Alisher Navoiy hayoti va ijodining o‘rganilishi”, degan maqolasi berilgan. Unda mavzu yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqotlarning asosiylariga to‘xtab o‘tilgan. Prof. Y.E.Bertels N. “X.” sidagi “L.M.” dostoniga tegishli fikr-mulohazalarini ilgari surgan bo‘lsa, atoqli o‘zbek shoiri Hamid Olimjon va “F.Sh.”ni o‘ziga xos yo‘sinda tadqiq va talqin qilgan. Shoir Uyg‘unning “Navoiy “Chor devon”i ham to‘plamdagi e’tiborga loyiq maqolalardandir.

Ruboiy Sharq she’riyatidagi eng mashhur janrlardan. Shunga qaramasdan, yigirmanchi asrning 40-yy.da ham adabiyotshunoslikda ruboiy tarixi va janr xususiyatlaridan ma’lumot beruvchi ishlar bo‘lmagan. Hodi Zarifov domlaning “Ruboiy” maqolasi ana shu yetishmovchilikka barham berish yo‘lidagi ilk qadam bo‘lgandi.

N. to‘g‘risida ko‘p narsa bilishga hali chanqoq kitobxonning Yunus Latifning “Mahbub ul-qulub”, A. Usmonovning “Muhokamat ul-lug‘atayn”, M.Salening “Makorim ul-axloq” va muallifiga oid maqolalarni ishtiyoq b.n mutolaa qilganini tasavvur etish qiyin emas. N. haqida rus tilida yozilgan ilmiy va ilmiy-ommabop asarlar kamchil ekanligi bois shu kitobda Xondamirning “Makorim ul-axloq”idan tanlangan parchalar tarjimasi ham berilgan.

M.A.

“O‘ZBEK ADABIYOTI TARIXI” II jild. XV asrning 2-yarmi – XX asrda O‘zR FA Til va adabiyot instituti rahbarligida respublikadagi n.shunoslar mualliffigida yaratilib, prof. A.Hayitmetov mas’ul muharrirligida nashr etilgan yirik tadqiqot (T.: Fan, 1977. – 460 b.) “O‘zbek adabiyoti tarixi” 5 jildligining II jildi XV asr 2-yarmi o‘zbek adabiyoti tarixini ilmiy yoritishga bag‘-ishlangan. Kitobda o‘zbek adabiyotinnng asoschisi N. hayoti va ijodi asosiy o‘rinni egallaydi. Maxsus bob va qismlarda N. yashagan davr, N. ning hayoti va faoliyati, adibning o‘zbek va fors tillaridagi lirik merosi keng tahlil qilinadi, uning dostonchilik janri taraqqiyotidagi roli ko‘rsatiladi.

O‘zbek adabiyoti tarixining eng rivojlangan davri XV asrning ikkinchi yarmi bo‘lib, bu davrda o‘zbek adabiyoti va o‘zbek adabiy tilining asoschisi, ulug‘ shoir va mutafakkir, yirik davlat arbobi, madaniyat homiysi N. ijodi yuzaga keldi, ilm va san’at ajoyib yutuqlarni qo‘lga kiritdi. N. shu davrda yashab ijod qilgan mashhur tojik shoiri va mutafakkiri Abdurahmon Jomiy b-n yaqindan hamkorlik qilib, ikki buyuk adibning hamfikrligi o‘zbek va tojik adabiyotlarining bundan keyingi taraqqiyotiga xizmat qildi.

N.ning hayoti va ijodi, uning hayoti va faoliyati b-n bog‘liq masalalar o‘zbek, qardosh va xorijlik olimlar tomonidan ilmiy asoslarda keng va chuqur o‘rganildi. Bunda shoir tug‘ilgan kunning 500 yilligi va 525 yilligi munosabati b-n o‘tkazilgan yubileylarning roli ham katta bo‘lgan. Hozirgi vaqtda N.ning hayoti va ijodi haqida o‘zbek, rus va

boshqa qardosh xalqlar tillarida, shuningdek, xorijda, Sharq va Yevropa xalqlari tillarida e'lon qilingan kitob va maqolalar bibliografiyasining o'zi bir necha jildni tashkil etadi. Bu esa o'zbek adabiyotining boshqa vakillariga nisbatan N. ko'proq o'rganilganligidan dalolat beradi.

Mazkur vaziyatdan va, shu b-n birga, N.ning faqat o'zbek adabiyoti tarixida emas, balki jahon xalqlari adabiyoti tarixida ham ijobiy rol o'ynagani, adabiy, ilmiy merosining favqulodda boyligi, janrlar e'tibori ila rang-barangligidan kelib chiqib, besh jildlik "O'zbek adabiyoti tarixi" ustida ish olib borgan mualliflar jamoasi XV asrning ikkinchi yarmidagi o'zbek adabiyoti tarixini maxsus jildda yoritishni maqbul ko'rdi. Mazkur jildni yaratishda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti (hozirgi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti) ilmiy xodimlari, respublikadagi n.shunos olimlar katta tashabbus va g'ayrat ko'rsatishib, bunda ulug' shoirning alohida nom qo'yib yozgan, deyarli, hamma asarlari imkoniyat darajasida tahlil etishgan. Ushbu jildga kiritilgan "XV asrning ikkinchi yarmida Xuroson va Movarounnahrdagi ijtimoiy-siyosiy, adabiy va madaniy hayot tavsifi", "L.M." qismlarini f.f.n. T.Ahmedov, "Alisher Navoiyning hayot yo'li" qismini f.f.d. A.Hayitmetov va f.f.n. M. Mirzaahmedova, "X.", "H.A.", "Navoiyning Sayyid Hasan Ardasherga she'riy maktubi", "T.M.A." faslini A.Hayitmetov, "X.M." qismini f.f.n. Y. Is'hoqov, "F.Sh." qismini f.f.d. S.Erkinov, "S.S." bo'limini f.f.n N.G'anixo'jayeva, "S.I." bo'limini f.f.d. A.Qayumov, "Navoiy qasidalari" qismini f.f.d. E.Rustamov, "Foniy devoni" qismini f.f.d. Sh.Shomuhamedov, "Mezon ul-avzon" haqida" bo'limini O'zbekiston Fanlar akademiyasining muxbir a'zosi, f.f.d. I.Sultonov, "M.L" bo'limini f.f.d. A.Rustamov va f.f.n. S.G'aniyeva, "L.T.", "Navoiyning prozaik va ilmiy-prozaik asarlari", "M.Q.", "M.N.", "Xam.M.", "H.S.H.A.", "H.P.M.", "V.", "M.", "N.J.", "Husayn Boyqaro" ("Kirish"da) qismlarini S.G'aniyeva, "Alisher Navoiyning "Mufradot" asari va uning muammolari" bo'limini f.f.n. L.Zohidov, "Nasoyim ul-muhabbat", "Tarixi anbiyo va hukamo" fasllarini f.f.n. T.G'afurjonova yozganlar. Shuningdek, A.Hayitmetov va M.Mirzaahmedova mualifligiga oid qismlar f.f.d. A.Abdug'afurov tomonidan tahrir qilindi. Mazkur jildni f.f.n. N.G'anixo'jayeva nashrga tayyorlagan.

Yirik hajmli ushbu kitob mavzular qamrovi va talqinlarning ilmiyligi b-n ham ancha yuksak saviyada turadi. U N. biografiyasi, uning deyarli, barcha asarlari bir butunlikda tahlil etilgani b-n o'tgan asrda shu mavzuda qilingan tadqiqotlar orasida qimmatli manbadir.

Shuni ham aytish lozimki, kitobda N. "X."si va diniy-tasavvufiy mazmundagi asarlari, shuningdek, Islom tarixi b-n aloqador hodisalar badiiy talqin etilgan matnlar Sobiq sho'rolar mafkurasi ta'siri tufayli yanglish yoki atayin buzib talqin qilingan o'rinlar mavjud.

"O'zbek adabiyoti tarixi" kitobi oliy o'quv yurtlarining filologiya fakulteti talabalari, adabiyot tarixi mutaxassislariga va N. ijodi b-n qiziquvchilarga mo'ljallangan.

M.A., S.O'.

"O'ZBEK KLASSIK ADABIYOTI ASARLARI UCHUN QISQACHA LUG'AT" – mumtoz o'zbek adabiyoti va tili bilimdonlari P.Shamsiyev va S.Ibrohimov tomonidan 1953-y. nashr qilingan ushbu lug'atda 12000 dan ortiq so'z va birikma izohlangan. O'quvchilarga yengillik tug'dirish maqsadida so'zlar avval kirill, so'ngra arab alifbosida berilgan: – azizroq, izzatliroq; ab – ota; abad – abadiy, doimiy; abadiylik, doimiylik; abd – banda, qul. So'zlarning faollik darajasidan kelib chiqib, ayrim harflarga kam (e-1, yo-2, y-1), ayrimlariga ko'p (b-28, m-59, s-34, t-33) sahifa ajratilgan.

So'zlar asosan bir ma'nosi b-n izohlangan: zahab – oltin, tilla, beh – yaxshi, xo'p, ma'qul, dilshod – dili shod, xursand. Ayrim so'zlar ikki ma'nosi b-n izohlangan:

mudir 1) idora etuvchi; 2) aylantiruvchi

omonim so'zlar raqam b-n ko'rsatilgan:

ayog' – piyola, kosa; ayog' – oyoq.

Minnat 1 – qilingan bir ish va yaxshilikni yuziga borib gapirish.

Minnat 2 – 1) maqtov; 2) yaxshilik, in'om; 3) birovning keltirgan yaxshiligini iqror etish.

Ayrim so'zlar izohida u b-n birikib keladigan birikmalar ham berilgan: mug' 1) majusiy, otashparast, o'tga cho'qinuvchi; 2) may, mayfurush; mug' dayri 1) mayxona, ichkilikxona; 2) o'tga topinuvchilar ibodatxonasi.

So'zlarning ko'plik shakli qavs ichida berilgan:

Sana – yil (ko'pligi sinii). So'z variantlari yonma-yon berilgan: qayon, qoyon qaysi tomon, qaysi yoq, qayerga, qayoqqa. Ayrim joylarda ular bir-biriga havola qilingan: qabon q. qobon.

Mazkur lug'atni 2023-y. S.Rafiddinov qayta nashrga tayyorladi.

Ushbu lug'at hanuz qimmatini yo'qotmagan.

Ad.: *Ўзбек классик адабиёти асарлари учун қисқача луғат. – Т., 1953.*

E.U.

"**O'ZBEK KLASSIK MUSIQASI VA UNING TARIXI"** – ma'rifatparvar, prof. Abdurauf Fitratning o'zbek mumtoz musiqasi taraqqiyoti tadrijiga va N.ning milliy musiqamiz tarixida tutgan o'rniga bag'ishlab yozgan kitobi. (A.Fitrat. "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi". – Toshkent: Fan, 1983. 57 b.) Asar 1926-y.da Samarqandda bitilgan. N. nomi kitobning "Usul" faslida Abdurahmon Jomiyning "Risolayi muammo" asarining yaratilishi b-n bog'liq ma'lumotda va "Musiqamizning tarixiga bir qarash" ("Turk musiqasi") nomli bobida esa aruz vazniga bag'ishlangan "M.A." asarida ma'lumot bergan "Arg'ushtik" otli bir usul doirasi borligi haqida batafsil gapirib o'tgan. Olim fikrlariga dalil sifatida N. lirikasidan misollar keltirgan.

Kitobda muallif musiqamiz tarixida "Qari Navoiy" kuyining N. asari bo'lgani ehtimoli xususida ham qimmatli xabar yozgan. Hatto mazkur kuyning notasini kitobga ilova tarzida bergani alohida ahamiyatga ega. Fitrat N.ning "Navoiy eng buyuk musiqiy ustozlarini eng iste'dodli musiqiy talabalarini o'z tarbiyasiga oldi" deb buyuk siymoning murabbiy muqavviyligiga ham ishora qilgan.

Ad.: *Фитрат. Ўзбек классик мусиқаси ва унинг тарихи. – Т., 1993.*

B.R.

"O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI VA YANGI O'ZBEK ADABIYOTI (ALISHER NAVOIY HAYOTI VA IJODI)" – N. hayoti va ijodiga bag'ishlab f.f. d-ri., prof. M.Asadov muallifligida nashrga tayyorlangan o'quv qo'llanma. Mazkur o'quv qo'llanma, asosan, oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda N. yashagan davr, shoir tarjimai holiga oid asosiy ma'lumotlar hamda uning asarlari xususidagi tahlil va talqinlar o'z ifodasini topgan. Ma'lumki, N.ning badiiy merosi nihoyatda serqirra bo'lib, janr va mavzu ko'lami jihatidan juda keng hisoblanadi. Qo'llanmada 15 ta mavzu keltirilgan bo'lib, ularda N. ijodidagi ma'lum bir yo'nalish maxsus yoritilgan. 1-mavzu N. hayoti va ijodiga bag'ishlangan bo'lsa, 2-mavzu shoir she'riyati, devonlarining yaratilish tarixi va tarkibiy tuzilishi kabi masalalarni o'z ichiga oladi. Qo'llanmaning 3-4-mavzulari Xamsachilik an'anasining vujudga kelish tarixi, N. "X."sining mushtarak va farqli jihatlari, "H.A."dagi maqolat va hikoyatlar tahlili va doston badiiyati xususida batafsil ma'lumot beradi. 5-mavzu "F.Sh." dostoni haqida bo'lib, bunda muallif Farhod obraziga diqqat qaratadi va undagi ibratli xislatlar adabiy parchalar misolida ko'rsatib beriladi. Keyingi uch doston ketma-ket mavzularda tahlil qilinib, dostonlarning tarkibiy tuzilishi, badiiyati va obrazlar tizimiga e'tibor qaratilgan. Muhimi, "X." dostonlari tadqiqida asarning hech bir jihati nazardan soqit qilinmagan, ayniqsa, ulardagi umumbashariy xususiyatlar tahlili asosiy o'ringa qo'yilgan. Mutafakkir shoirning ilmiy va diniy asarlari 10-mavzuda keltirilgan bo'lib, N.ning adabiyotshunos va tilshunos sifatidagi xizmatlari "M.", "M.A." hamda "M.L."

singari nazariy asarlari tahlili misolida ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, N.ning chin e’tiqodini ko‘rsatuvchi “Munj.”, “S.M.”, “A.”, “N.J.” singari diniy asarlari ham shu qismda yoritilgan. Shoirning memuar-yodnoma hamda tazkira asarlariga ham qo‘llanmada alohida qismlar ajratilgan bo‘lib, mazkur kitoblardagi ustoz va zamondosh shoirlarga bo‘lgan yuksak ehtirom, ijtimoiy muhitga xolis munosabat kabi masalalarga e’tibor qaratilgan. Bundan tashqari, o‘quv qo‘llanmada “L.T.” dostonidagi ramziy-majoziy tasvir usuli hamda irfoniy mazmun-mohiyati haqida ham maxsus to‘xtalib o‘tilgan. Ayniqsa, N.ning oxirgi asari “M.Q.”ning ma’rifiy ahamiyati kitobda alohida yoritilgan bo‘lib, ta’lim-tarbiya uchun kerak bo‘ladigan o‘rinlar birma-bir tahlil qilingan. Qo‘llanma yakunida mavzulashtirilgan glossariylarning berilishi ma’lumotlarning yanada aniq va tushunarli bo‘lishi uchun xizmat qilgan. Muallif har bir mavzuni yoritishda, oxirgi yillarda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlardan samarali foydalangan va N. hayoti-ijodiga doir bahs-munozarali ma’lumotlarga aniqlik kiritib ketgan. Jumladan, N. lirik merosidagi janrlar tizimi: qit’a, ruboiy, muxammas va soqiynoma tadqiqida buni yaqqol kuzatish mumkin. Umuman olganda, muallif shu kungacha N. haqida ilm-fanga ma’lum bo‘lgan ma’lumot va talqinlarni chuqur o‘rganib, eng aniq va asosiylarini qo‘llanmada jamlagan.

Ad.: *Асадов М. Ўзбек адабиёти тарихи ва янги ўзбек адабиёти (Алишер Навоий ҳаёти ва ижоди)[матн]: ўқув қўлланма. – Т., 2023.*

N.J.

O‘ZBEK URUG‘LARI – ilmiy adabiyotlarda N. asarlari asosida qaysi shevalar yotadi, degan munozara yuradi. Ayrim olimlar Bobur yozib qoldirgan ma’lumotga asoslanib, shoir asarlari asosida Andijon shevasi yotadi, desalar, A.K.Borovkov Qo‘qon shevasi, X.Doniyorov qipchoq shevalari, D.Abdurahmonov, B.Hasanov barlos shevasi yotadi, degan fikrni bildirganlar. F.Abdullayev “Alisher Navoiy asos solgan adabiy tilning negizini, hech shubhasiz, O‘zbekiston hududiga tarqalgan o‘zbek shevalari, birinchi navbatda, yangi o‘zbek adabiy tiliga asos bo‘lgan yetakchi shahar shevalaridan axtarish kerak”, deb yozadi. Shoir asarlarini chuqurroq o‘rganish bu masalaga birmuncha aniqlik kiritishga yordam beradi, deb o‘ylaymiz. Bu aniqlik shoir asarlarida uchrovchi urug‘ nomlari b-n bog‘liq. Shoir asarlarida o‘ttizdan ortiq urug‘ nomlari uchraydi. G‘azallardagi urug‘larga berilgan tavsiflar N. ular b-n bevosita muloqotda bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Avvalo, shuni aytish kerakki, N. hamma turkiy qavm, urug‘larni umumlashtiruvchi turk etnonimi b-n ataydi:

Men turkcha boshlabon rivoyat,
Qildim bu fasonani hikoyat.

Yoki:

Turk nazmida chu men tortib alam,
Ayladim ul mamlakatni yakqalam.

Shu b-n birga, **turk** urug‘ini ham ayni atama b-n nomlaydi:

Ko‘ngul bermish so‘zumg‘a turk jon ham,
Ne yolg‘uz turk, balkim turkmon ham.

Shoir asarlarida bir necha joyda o‘zbek so‘zi qalamga olingan:

Yana yuz, ming, o‘zbek, mo‘g‘ul birla zam,
Yuz ellik ming ul sori qalmoq ham.

Yoki:

Shoh-u toj-u xil’atekim, men tamosho qilg‘ali,
O‘zbakim boshida qalpoq, egnida shirdog‘i bas.

Sulduz urug‘ini XV asrda tuzilgan “Badoye’ ul-lug‘at” muallifi Tole’ Hiraviy turkiy hisoblaydi:

Navoiy sevdi bir lo‘lini, kezdik rub’i maskunda,
Agar arlot, agar barlos, agar tarxon, agar sulduz.

Keyinchalik – XX asrga kelib bu urug‘ boshqa elatlar b-n aralashib ketganidan bo‘lsa kerak. Janubiy O‘zbekiston etnik tarkibining yirik tadqiqotchisi B.X.Karmisheva uni mo‘g‘ul urug‘i sifatida qayd etib, Denov bekligida yashaganligini ko‘rsatib o‘tadi. Bu so‘z ayrim joylarda hozir **yulduz** shaklida uchraydi.

Arlot va bilgut etnonimi “F.K.”da bir necha joyda uchraydi:

Ey Navoiy, meni zor ayladi bir lo‘livash,
Kim ham arlot unut bo‘ldi manga, ham bilgut.

Bu urug‘lar ham O‘zbekiston hududida yashaganlar. Buxoroning Olot tumani arlot urug‘i nomi b-n bog‘liq. *Arlot* so‘zi talaffuzda olot shaklini olgan. Bilgut urug‘i boshqa elatlar b-n qo‘shilib ketganidan bo‘lsa kerak, hozircha uchratmadik.

“F.K.”da uchrovchi yag‘mo qavmi haqida ham shuni aytish mumkin:

Chu ko‘rdim og‘zi-yu zulfini,
hushum bordi yag‘mog‘a,
Ki mul kayfiyati fahm o‘ldi aning
mim-u lomidin.

Yag‘mo urug‘i Mahmud Koshg‘ariy asarida ham qayd qilingan. “N.Sh.”dagi qo‘ng‘irot urug‘i:

Men tilab husn, vale shoh tilab nasl-u nasab,
Menga lo‘liy bilan hind-u anga qo‘ng‘irot-u qiyot.

Hozir ham Qashqa va Surxon vohalarining ko‘pgina joylarida yashaydilar.

“G‘.S.”da turkiy malish, malash va barlos urug‘lari qalamga olingan:

Ey Navoiy, naylay, el tarxon bilan barlosini,
Kim berur ko‘nglumga holo malish ul sho‘x malash.

Bu urug‘lardan malish va malashni hozir uchratmadik, ammo barloslar asosan Qashhadaryo va Surxondaryoda yashaydilar. Tarixdan ma’lumki, o‘rta asrlarda barloslar jamiyat hayotida nufuzli o‘rinni egallaganlar. Prof. A.Y.Yakubovskiyning ko‘rsatishicha, N. barlos urug‘idan chiqqan.

Qashqadaryoda mirak b-n bog‘liq anchagina atamalar bor: Mirak tog‘i, Mirak qishlog‘i. O‘rta asrning mashhur san’atkori Mirak Naqqosh ismidagi birinchi so‘z ham mirak urug‘i b-n bog‘liq. “G‘.S.”dagi misoldan ko‘rinishicha, mirak urug‘i ayollari yurish-turishi, go‘zalligi b-n ajralib turganlar:

Chamanda savsan-u ra’no qadig‘a moyilmen,
Ki savsaniy to‘n ila jilva qilur miragim.

N. qiyot urug‘ini bir necha marta qalamga oladi:

Ey Navoiy, chu gadosen sen-u bir lo‘livash,
Shohg‘a mirzo-yu mirak, ong‘a qiyot-u qo‘ng‘irot.

Bu urug‘ning Janubiy O‘zbekiston hududida yashashi olimlar tomonidan qayd qilingan.

Shoir asarlarida hozirda G‘uzor va Qamashi, shuningdek, Samarqand viloyatining Qo‘shrabot tumanlarida yashovchi turkman urug‘i ham qalamga olingan:

Navoiy turklarning tarki tutsa, ayb qilmangkim,
Anga bir turkman mahvash g‘ami do‘loshibdur.

Qipchoq shevasi shahobchasiga xos bu urug‘ vakillari o‘zlarini turkmanlarga hech qanday aloqalari yo‘qligini ta’kidlaydilar.

Shoir asarlaridagi chig‘atoy va xalaj urug‘lari:

Navoiy, ista mazohirda chehrayi maqsud,
Arab va gar chig‘atoy, yo‘qsa turkman-u xalaj

Etnograf olimlar ta’kidlashicha, respublikamiz janubida yashaganlar. M-n, chig‘atoy urug‘i hozir ham Boysunda, Sherobodda, Darbandda, Qo‘hitang tizmalari atrofida yashaydilar.

B.X.Karmisheva Janubiy O‘zbekiston vohalarini sinchkovlik b-n tekshirar ekan, Sangardakda (Uzun rayoni) **muqimiy** urug‘ini qayd etadi. O‘zbekning bu urug‘i N.ning “B.V.” devonining 511 raqamli g‘azalida uchraydi:

Soqiyo, aylar xumorim qasdi jon, qilsam ne ayb,
Xasta jonimni muqimiy, ko‘yi xammor orzu.

Bayt mazmunidan ko‘rinib turibdiki, shoir soqiyga murojaat etib, xumor meni o‘ldirmoqda, agar muqimiy kabi xasta jonim ichkilik orzu qilsa, ne ayb, demoqda. Afsuski, bu urug‘ni ham hozircha uchratmadik.

Shoirning “V.” asarida **qiyot, qo‘ng‘irot, barlos, arlot** b-n birgalikda, **qovchin** va **jaloyir** urug‘lari uchraydi: “...va jaloyir g‘avg‘osi va qovchin alolasi mavjud erdi...”.

Ayniqsa, bu yerdagi **qovchin** urug‘i diqqatga sazovor. Bu urug‘ vakillari bugungi kunda Qamashi, Yakkabog‘ tumanlarda yashaydilar.

“F.K.”dagi:

Soching qarosida yuz ming tibbat-u totor,
Qading havosida ming sarvi o‘chavu xallux.

uja/ucha va **xallux** urug‘lari bizga boshqacharoq shaklda etib kelgan. **Uja/o‘cha** so‘zi Jizzax viloyati Zomin tumanidagi Aji qishlog‘i nomida saqlanib qolgan. **Xallux** hozir **qarluq** shaklida uchraydi. Shoir asarlarida uchrovchi **xo‘ja** va **saroy** urug‘lari:

Necha xo‘ja, saroy birla kaniz,
Tutqali sarvi siymbarni aziz –

Hozir ham Qashqadaryo va Surxondaryo vohalarida yashaydilar. “F.K.”da **chigil** urug‘i qalamga olingan:

Poklar Chin-u Chigil husni aro bo‘lg‘an ila,
Kimsa oloyish alar jonibig‘a yo‘l bermas.

Bu so‘z “N.Sh.”da **chug‘ul** shaklida ham uchraydi:

Ko‘zlaringkim, turku tojik o‘ldi ko‘nglum mulkida
Zulm etar ul nav’ikim, bir kishvar ahlig‘a chug‘ul.

Chigil so‘zi **chik** va **el** so‘zlaridan hosil bo‘lgan. Chiklar eng qadimgi turkiy urug‘lardan bo‘lib, tuva xalqi shakllanishida ham ishtirok etgan.

Hozir, asosan, Chiroqchida yashovchi **chuyut-juyut** urug‘i “F.K.”da qayd qilingan:

Ey Navoiy, ayladi lo‘livashe ko‘nglumni qayd,
Xalqni atrok asir etti vale bizni jatut.

N.ning “N.Sh.”devonidagi **oqar** urug‘i:

Ey Navoiy, manga bas ul sanami lo‘liyvash,
Bekka qipchoq-u og‘ar, shahg‘a qiyot-u bilgut –

Hozir boshqa urug‘lar b-n qo‘shilib ketgan. Lekin u joy nomi sifatida saqlanib qolgan. M-n, Zomin tumanidagi “Progress” davlat xo‘jaligidagi Oqar qishlog‘i gapimizning isboti bo‘lishi mumkin. **Lekin** va **yuz** urug‘lari “F.Sh.”da qayd qilingan:

Agar bir qavm, gar yuz, yo‘qsa mingdur,
Muayyan turk ulusi xud meningdur.

N.ning “N.Sh.” devonida bir necha marta **mirza** urug‘i qalamga olingan:

Xo‘blug‘ mulkida yuz shoh o‘lsa,
Biri bo‘lg‘aymu bizing mirzodek.

Yoki:

Meni bir mug‘bacha oshuftau volih qilmish,
Naylay islom aro gar ko‘p esa mirzov-u mirak.

Shevashunos B. Jo‘rayevning ko‘rsatishicha, bu urug o‘zning bir bo‘limi sifatida hozir ham Chiroqchi tumanida yashaydi.

“N.Sh.”dagi tug‘moch urug‘ini hozircha uchratmagan bo‘lsak-da, u o‘rta asrlarda bu vohalarda yashaganligi shubhasiz:

O‘zbak, mo‘g‘ul o‘lg‘ay aning ollida musulmon,
Bilmon oni qalmoqmudur, yo‘q esa tag‘moch.

“B.V.”da **bek** urug‘i uchraydi. Ayol jinsi **beka** shaklida ishlatilgan:

Ishq agar bo‘lsa havoyi nafsdin pok, ey ko‘ngul,
Yo‘q tafovut, dilbaring gar beka bo‘lsun, gar mirak.

Hozir Shahrisabzda yashovchi **begzoda** urug‘i bu so‘z b-n bog‘liq bo‘lsa kerak, degan fikrdamiz.

Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, shoir tilining dialektal asoslarini izlashda yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan urug‘lar tiliga e’tibor berish kerak. Baxtimizga bu urug‘lar hozir ham mavjud. Ulardan har birining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish N. asarlari tilining dialektal asoslarini o‘rganishda katta ahamiyatga ega.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011.*

E.U.

“O‘Z”, “O‘ZLIK” – Turkiy adabiyotda nafs aksariyat turkiy *“o‘z”, “o‘zlik”, “menlik”* so‘zlari b-n beriladi. Haq yo‘lchilari u-n o‘zlikni yengish, uni tarbiyalash muhim sanalgan. Arab va fors adabiyotining ta’sirida turkiy diniy-tasavvufiy adabiyotning paydo bo‘lishi alohida bir hodisa bo‘lganligidek, turkiy so‘zlarning irfoniy istiloh sifatida qo‘llanilishi ham alohida ahamiyatga ega. “O‘z”, “O‘zluk” mana shunday so‘zlardan sanaladi. O‘zlik – asli mohiyat, tub asos, biror bir narsa yoki mavjudlikning boshqasinikiga o‘xshamaydigan, ya’ni o‘ziga xos xususiyat va sifatlaridir. Bularsiz o‘sha narsa yoki ashyo mavjud bo‘lmaydi. Naql etilishicha, Alloh taoloning ilk yaratiqi bir javhar bo‘lib, unga “avval” deyilgan ekan. Alloh ruh va jismlar olamini yaratayotganda o‘sha javharga nazar solgani hamon u erib qaynay boshlabdi. Va uning tubiga cho‘kkan narsaga “o‘z” deyilib moddiy va ma’naviy barcha borliqlarning sir-asrori unda yashiringan ekan. “O‘z” o‘zagidan paydo bo‘lgan o‘zlik kalimasi ham insoniylikning javhari, tub asosi mazmunini aks ettirgan.

Vaqt va zamon o‘tib “o‘z”, “o‘zlik” – bularning muqobili “men” va “menlik” tushunchasiga o‘zgartirishlar bo‘lgan. Bu ish, asosan, tasavvuf va tasavvuf adabiyoti vakillari tomonidan amalga oshirilgan. Bunga esa “Nafsini bilgan Robbini bilur” hadisi ta’sirida nafsni chuqur o‘rganish, tekshirish va isloh qilishga kirishish sabab edi. O‘zining ojizlik, yomonlik, yovuzlik va qabihliklarini aniqroq anglaguncha ham inson ko‘p adashgan, biri-biridan og‘irroq xatoliklarga yo‘l qo‘ygan. Nihoyat, tasavvuf va tariqat peshvolari Haq va haqiqat yo‘lidan ozdirib, odamni xor-u zalil aylab, goh hayvonga, goh shaytonga yaqinlashtiruvchi barcha yomonliklarning bosh manbai nafsdir, – degan xulosaga kelib, unga O‘zlik nomini berishgan. Ulug‘ salaflari Xoja Ahmad Yassaviy, Hofiz Sheroziy, Fariduddin Attor, Jaloliddin Rumiylar kabi N. ham o‘zlikni asosan mazkur ma’noda talqin qilgan. N. o‘zlikni axloqiy tozalik, ma’naviy yetuklikka to‘siq bo‘ladigan eng og‘ir yuk, deb hisoblaydi va turli janrdagi she’rlarida undan qutilishga chorlaydi. Mutafakkir shoir dostonlaridan birida aniq va lo‘nda qilib mana nima degan:

O‘zlugungdek og‘ir yuking yo‘q bil,
Ul og‘ir yukdin o‘zni aylagil yengil.
Chunki ul yukni o‘zdin etting kam,
Do‘st ko‘yida bil burung‘i qadam.

Ma’lum bo‘layotirki, o‘zlik yukini yengillatishni shoir Allohga tomon borish, ya’ni sayri sulukdagi dastlabki qadam, deb hisoblaydi. O‘zlik yuki o‘zi nima? Nafs tasarrufidagi hirs, tama’, riyo, hasad, adovat singari qirqqa yaqin yomon va chirkin sifat va xususiyatlardir. O‘zni bilish inson botinidagi shu nafs farzandi va navkarlari b-n endi shakllana boshlagan ma’naviy menlik orasidagi uzoq davom etadigan ixtilofda ko‘pincha bashariy menlik g‘olib chiqqani uchun kuchli, erkin, mustaqil shaxsning shakllanishi to‘xtaydi va suvrat b-n siyrat orasida axloqiy-

ma’naviy nomuvofiqlik yuzaga keladi. Bunday tolesizlikning oldini olish uchun N. mana bunday ko‘rsatma beradi:

Noqis uldurkim, o‘zni komil degay,
Komil ulki nuqsin isbot aylagay.

O‘z kamolidin demas ahli kamol,
Ahli nuqson ichradur bu qil-u qol.

Tasavvufshunos, faylasuf va adabiyot mutaxassislari orasida o‘zlik masalasida ikki xil qarash bor. Bir guruh tadqiqotchilar inson o‘zligini oliy darajaga yetkazdimi, xuddi dengizga qo‘shilgan bir tomchi suvday mavjudligini yo‘qotishi va Allohga fano bo‘ldim, deyishi kerak degan fikrdadirlar. Bu tushuncha qanchalik ziddiyatli bo‘lsa, shuncha mulohazaga muhtojdir. Chunki N. so‘zlari b-n aytganda, shaxsning o‘z vujudig‘a tafakkur qilib, har ne istasa, o‘zidan istash ko‘nikmasini yo‘qotadigan har qanday g‘oya jamiyatda qo‘rqoq, mute, ma’naviy g‘ayrat va shijoatdan mahrum kimsalarning sonini ko‘paytiradi, xolos. Endi ikkinchi nuqtayi nazarga kelsak, unga ko‘ra solik ishq va irfonga fone bo‘ladimi, xalq saviyasidan yuksalib, Haq diydoriga yetishadimi, bundan qat’i nazar ma’nan o‘zligini boy bermasligi kerak.

Mutafakkir shoir N. lirikasida o‘z, o‘zluk kalimasi irfoniy istiloh darajasiga ko‘tarilish barobarida turli ma’no qirralarini namoyon qilgan. Yangi badiiy talqinlar yuzaga kelgan. M-n, “B.B.” devonidagi:

Erur maqsad yiroq, vodiy uzun,
tun tiyra, yo‘l bo‘rtoq
Bu yo‘lda salb etib ***o‘zluk*** *yukin,*
o‘z*ni sabukbor et,*

kabi baytlarda o‘zluk so‘zi tavhid yo‘lchiligida bir og‘ir yuk ekanligi, undan qutilish, engish zarurligi uqtiriladi. Bunday misollarni ko‘plab uchratish mumkin. Ammo N. har bir asarining maslagi, janriy mohiyatidan kelib chiqqan holda ifodalar tanlaydi. She’riyatida lirik qahramonning ma’naviy hol va maqomlarining izhori sifatida o‘z, o‘zluk turkiy so‘zlaridan foydalansa, dostonlarida nazariy xulosalarni o‘rtaga tashlaydi:

O‘zni o‘zluk qaydidin aylab xalos,
Topib o‘zdin o‘zgalikka ixtisos.

O‘zlukni mahv etib o‘zlukka etish tavhid vodiysi fano maqomi b-n bog‘liqligiga guvoh bo‘lindi. Solikning shunday baland maqomida o‘zluk haqida bahs yuritiladi:

Ey Navoiy, tashlab o‘zlukni, fano yo‘lig‘a kir-
Kim, erur ul yo‘lda egningga bu og‘ir yuk balo.

Shuningdek, ishq b-n bog‘liq hollarda o‘z, o‘zlik, ya’ni nafsdan so‘z ochiladi. Zero, o‘zlik tarbiyasi ishq b-n boshlanadi. Qalblarda ishq urug‘i tushgach, inson o‘zlik mohiyati haqida tafakkur qilishni boshlaydi. Shuningdek, o‘zlikni yengib, o‘zlikka yetish mashaqqatida kuch topa oladi:

Desangkim, o‘zlugumdin,
o‘zga hoyil bormu jonong‘a,
Bo‘lurmu, ey Navoiy,
ishq aro mundin batar hoyil?!

Mazkur so‘zlarning irfoniy-istilohiy ma’no qirralari ko‘proq maqta’ yoki maqta’dan oldingi begona baytda uchraydi:

Navoiy, o‘rtabon o‘zluk, qadam
bu yo‘lg‘a qo‘y, ya’ni
Ki har hamrohkim bo‘lg‘ay
tajarrud moni’i yondur.

“N.M.” tazkirasida ham o‘zlik haqida so‘z boradi: “Mavlono der ermishlarkim, avval qatlakim, Hazrat Xojayi buzurgvor muborak suhbatlarig‘a etib, o‘zni topshurduk, alar buyurdilarki, biz o‘zlukumiz bila hech ish qilmasbiz, bu kecha ko‘ralikim, seni radmu qilurlar, yo qabulmu?” “O‘zni topshurish”, aslida nafsini, iroda-

sini shayxga taslim qilishdir. “O‘zluk zulmati”ni yengish valiy zotlarning maqsadi bo‘lgan. N. ham shunday munojot qiladi: “Ilohi, o‘zluk yomonlig‘idin o‘zlugum bila o‘ta olmaydurmen va yaxshilarning etagin yomonlig‘im uyotidin tuta olmaydurmen Ilohi, emdi hamkim, barchadin kechmak xayolin qilurmen, o‘zlugum bila kecha olmon, yaqin bilurmen”.

N. O‘z, o‘zluk so‘zlarini boshqa ijodkorlarga nisbatan ko‘p qo‘llagan. Xalqda ham *“o‘zingga kel”, “o‘zini unutdi”, “o‘zidan ketdi”* kabi iboralar ham aynan nafsga ishora qiladi. N.ning turkiy tilni she’riyat tiliga aylantirish maqsadi b-n birga turkiy ruhni berishdagi imkon-imtiyozlardan foydalanishi ham alohida ahamiyatga ega.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Насафий А. Тасаввуфда инсон масаласи: Инсони комил. – Истанбул, 1990; Рамазонов Н.Н. Навоий ижодида фақр талқини ва фақир образи. – Т., 2015.*

I.H., Z.R.

O‘ZBEKISTONDA NAVOIYSHUNOSLIK

N. hayoti va ijodini o‘rganish hali uning hayotligidayoq boshlangan edi. Mirxond, Davlatshoh Samarqandiy, Abdurahmon Jomiy, Xondamir, Zahiriddin Muhammad Bobur, Zayniddin Vosifiy, Faxriy Hirotiy, Ahliy Sheroziy, Qazviniy kabi olimu adiblarning asarlarida ulug‘ shoir hayoti va faoliyati u yoki bu darajada yoritilgan. Xondamirning “Makorim ul-axloq” asari esa bevosita N.ga bag‘ishlangan.

N. ijodini o‘rganish, asarlarini ko‘chirish, ular asosida lug‘atlar tuzish hamda Sharq va G‘arb tillariga tarjima qilish keyingi asrlarda kuchaygan bo‘lsa-da, shoir hayoti va ijodini sistemali ravishda o‘rganishga XX asrda asos solindi. Bu asrda n.shunoslik shakllandi, rivojlandi va asosiy fan tarmog‘i sifatida ajralib chiqdi.

N.ning hayoti sermazmun, faoliyati serqirra, ijodi sermahsul bo‘lganligidan n.shunoslik bir necha yo‘nalishda qizg‘in ish olib bordi va ularning barchasida ko‘zga ko‘rinarli natijalarga erishdi:

I. N. hayoti, faoliyati, ijodi, davri, muhiti, badiiy mahorati, adabiy an’analari, asarlari tarjimalarini o‘rganish. Bu yo‘nalishda amalga oshirilgan muhim, n.shunoslikning keyingi taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatgan va hozirgi kunda ham ahamiyatini yo‘qotmagan ishlar sifatida A.Fitrat va V.Mahmudlarning maqolalari, O.Sharafiddinovning “Alisher Navoiy” (1939) kitobi, “Родоначальник Узбекская литература” (1940), “Ulug‘ o‘zbek shoiri” (1948), “Navoiy va Jomiy” (1966), “Navoiy zamondoshlari xotirasida” (1985), “Navoiy nigohi tushgan ...” (1987) to‘plamlari, S.Ayniyning “Alisher Navoiy” (1948) monografiyasi, M.Shayxzodaning shoirning mahorat sirlarini ochishga bag‘ishlangan tadqiqotlari, Oybekning “Navoiy gulshani” (1967), A.Hayitmetovning “Navoiy lirikasi” (1961), T.Jalolovning “Xamsa” talqinlari” (1962), S.G‘aniyevaning “Alisher Navoiy” (1968), N.Mallayevning “Genial shoir va mutafakkir” (1968), V.Abdullayevning “Navoiy Samarqandda” (1968), I.Sultonning “Navoiyning qalb daftari” (1969), V.Zohidovning “Ulug‘ shoir ijodining qalbi” (1970), A.Abdug‘afurovning “Navoiy ijodida satira” (1972), A.Rustamovning “Navoiyning badiiy mahorati” (1987), Y.Is’hoqovning “Navoiy poetikasi” (1983), S. Hasanovning “Navoiyning yetti tuhfasi” (1991), I.Haqqulning “Zanjirband sher qoshida” (1989) asarlarini ko‘rsatish mumkin.

II. N. asarlarini izlab topish, matniy tadqiq etish, nashrga tayyorlash va chop etish. Shoir xalqimiz o‘rtasida har qancha mashhur bo‘lmasin, uning “X.M.” (“Chor devon”) va “X.” asarlarigina keng tarqalgan. Qolgan ko‘pchilik asarlari olimlarimizning tinimsiz izlanishlari va sa’y-harakatlari tufayli jahonning turli qo‘lyozma fondlari va shaxsiy kutubxonalaridan topilib, ularning nisbatan mukammal tayanch nusxalari tanlanib, boshqa nusxalar b-n qiyosiy o‘rganilgan holda to‘liq nusxalari tiklandi va keng jamoatchilikka yetkazildi. Natijada bu asarlarning bir qator alohida nashrlaridan tashqari N.ning III jildlik “Tanlangan asarlar” (1948), XV jildlik “Asarlar” (1963–1968), XX jildlik “Mukammal asarlar to‘plami” (1987–

2003), X jildlik “To‘la asarlar to‘plami” (2011) nashr etildi. Shu tariqa ulug‘ shoir merosi to‘la holda kitob javonlarimizdan o‘rin oldi.

III. “Devoni Foniy” va N.ning forsiy merosi nashrlari, tarjimalari tadqiqi. Ma’lumki, N. nafaqat o‘zbek, balki fors-tojik tilida ham Foniy taxallusi b-n samarali ijod qilgan zabardast zullisonayn shoir hisoblanadi. U 1495–1500-yy.da fors-tojik tilidagi ijod namunalarini to‘plab, “D.F.”ni tartib bergan, shuningdek, “Sittayi zaruriya” (“Olti zarurat”) va “Fusuli arbaa” (“To‘rt fasl”) qasidalar to‘plamini tuzadi. Shoirning forsiy merosini taniqli matnshunos olim H.Sulaymon Parij kutubxonalaridan topib kelib, ilk marta 1965-y. N.ning XV jildlik “Asarlar” to‘plamining 5-jildi sifatida 2 kitobda nasriy tarjimasi b-n e’lon qilgan edi. XX jildlik “Mukammal asarlar to‘plami”da u nisbatan to‘liq holda uch jildda − XVIII−XX jildlar, X jildlik “To‘la asarlar to‘plami”ning esa V jildida nashr etildi. Ularni H.Sulaymon, M.Muhammadjonov, L.Zohidov, S.Erkinov, A.Habibullayev, H.Muxtorova, S. Rafiddinov, Sh.Yorqin, E.Ochilov, N.Bekovalar nasriy tarjima qilganlar.

N.ning forsiy merosi to‘liq she’riy tarjima qilinmagan. Lekin turli yillarda G‘.G‘ulom, Habibiy, Sh.Shomuhamedov, A.Hayitmetov, J.Kamol, H.Said G‘ani, N.Muhammad, E.Shodiyev, S.Rafiddinov, E.Ochilovlar undan namunalar tarjima qilganlar. Bu boradagi salmoqli natija O‘zbekiston xalq shoiri J.Kamolga tegishli bo‘lib, u N.ning forsiy ijodidan 200 g‘azal va 10 qasidani tarjima qilib, “Foniy gulshani” nomi b-n alohida to‘plam holida nashr ettirdi (2011).

Shoirning forsiy merosi Fitrat, Ayniy, N.Mallayev, Sh.Shomuhamedov, B.Valixo‘jayev, S.Erkinov, N.Komilov, A.Abdullayev, S.Erkinov, S.Rafiddinov, E.Ochilov, K.Mullaxo‘jayeva, N. Bekova, D.Yusupova va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

IV. N. asarlarining nasriy bayonlari. Keng xalq ommasini ulug‘ shoir asarlaridan bahramand qilish maqsadida “X.” dostonlarining qisqartirilgan nasriy bayonlarini yaratishni X1X asrda Xorazmda Umar Boqiy boshlab bergan bo‘lib, u “F.Sh.” hamda “L.M.”ning nasriy bayonini yaratadi. Uning hamyurti Mahzun ham “L.M.”ning nasriy bayonini yaratgan. Keyin toshkentlik Mir Maxdum Shohyunus “F.Sh.”, “L.M.”, “S.S.”, “S.I.” dostonlarini nasriy tabdil qiladi. Bu an’ana yangi davrda ham davom etib, o‘tgan asrning 40-yillarida “F.Sh.” (G‘.G‘ulom), “L.M.” (A.Umariy, Sh.Husaynzoda), “S.I.” (I.Maxdum, Yu.Latif) dostonlarining nasriy bayonlari nashr etildi. 1974–1978 yy.da “X.”ning P.Shamsiyev nashrga tayyorlagan ilmiy tanqidiy matni asosida to‘liq tabdili amalga oshirildi: “H.A.”, “F.Sh.” (A.Hayitmetov), “L.M.” (N.Norqulov, V.Rahmonov), “S.S.”, “S.I.” (I.Maxsumov), shuningdek, “M.Q.” (I.Maxsum, 1983) va “L.T.” (Sh.Sharipov, 1991), “H.A.” (A.Malik, 2021), “X.” (O.Davlatov, D.Yusupova, 2022) asarlarining nasriy bayonlari ham yaratildi.

V. N.xonlik anjumanlari. Shoir hayoti va ijodiga bag‘ishlab respublika va xalqaro miqyosda ko‘plab ilmiy-amaliy anjumanlar o‘tkazilib, sohaning dolzarb muammolari xususida fikr almashilgan va ularning materiallari alohida to‘plamlar holida nashr etilgan. Ayniqsa, N.ning 1948-y. da 500, 1968-y.da 525, 1991-y.da 550, 2001-y. da 560, 2011-y.da 570, 2021-y.da 580 yillik yubileylari xalqaro miqyosda tantana qilinib, ular munosabati b-n ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirildi, kitob va to‘plamlar nashr etildi.

1957-y.dan buyon har yili 9-fevralda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Til va Adabiyot instituti (hozirgi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti)da an’anaviy n.xonlik anjumani o‘tkaziladi va N. hayoti va ijodi bo‘yicha amalga oshirilgan yillik ishlar sarhisob qilib boriladi. Ushbu anjumanlar mahsuli sifatida “Ulug‘ o‘zbek shoiri” (1948), “Navoiy va adabiy ta’sir masalalari” (1968), “Navoiy va ijod saboqlari” (1981), “Navoiyning ijod olami” (1-kitob, 2001, 2-kitob, 2011, 3-kitob, 2016, 4-kitob, 2022) kabi maqolalar to‘plamlari nashr etilgan.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida o‘tkaziladigan n.xonlik

anjumanlarining mahsuli sifatida “Navoiyga armug‘on” to‘plamining 6 ta kitobi nashr etildi.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida tashkillashtirilayotgan n.xonlik konferensiyalari natijasida yuzaga chiqayotgan “Alisher Navoiy va XXI asr”, Toshkent Sharqshunoslik universitetining tizimli to‘plamlari bu silsilani yanada to‘ldiradi.

VI. N. asarlarining sharhlari. Keyingi yillarda N. asarlarining mag‘iz-mohiyatini keng o‘quvchilar ommasiga yetkazib berish maqsadida shoirning g‘azallari, qit’alari, ruboiylari, hatto alohida baytlari sharhlab berilmoqda. A.Rustamov, A.Hayitmetov, A.Abdug‘afurov, Y.Is’hoqov, N.Komilov, I.Haqqul, S.Olim, N.Jumaxo‘ja, I.Bekjon, S.Rafiddin, E.Ochilov, N.Abdulhakim, K.Mullaxo‘jayeva, B.Rajabova, M.Asadovlarning bu boradagi ishlari diqqatga sazovor. Bu sharhlar asosida alohida to‘plamlar va kitoblar ham nashr etildi. “Alisher Navoiy. G‘azallar. Sharhlar” (1991) to‘plami, I.Haqqulning shoir qit’alari sharhlangan “Kamol et kasbkim” (1991), N.Jumaxo‘janing N. g‘azallari sharhiga bag‘ishlangan “Satrlar silsilasidagi sehr” (1996), N.Komilovning uning 50 g‘azali sharhlangan “Ma’nolar olamiga safar” (2012), E.Ochilovning g‘azal va baytlari sharhi asosidagi “Bir hovuch dur” (2011) I.Haqqul va E.Ochilovlarning “Ishq va hayrat olami” (2020), O.Davlatovning “X.M.”dagi g‘azallar sharhlangan “Ma’nolar xazinasi” (2021)kitoblari shular jumlasidandir.

VII. N. ijodini o‘rganishga bag‘ishlangan doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari. N. hayoti va ijodini o‘rganishga bag‘ishlab bir necha o‘nlab doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari yoqlangan. A.Sa’diyning “Navoiy ijodi – o‘zbek klassik adabiyotining yuqori bosqichi”, V. Zohidovning “Navoiyning dunyoqarashi” kabi doktorlik dissertatsiyalari b-n boshlangan bu an’ana keyinchalik A.Hayitmetov, A.Abdug‘afurov, V.Abdullayev, N.Mallayev, A.Rustamov, Sh.Sharipov, B Hasanov, B.Bafoyev, Y.Is’hoqov, M.Muhiddinov, S.Olimov, D.Salohiy, Sh.Sirojiddinov, H.Jo‘rayev, F.Karimova, K.Mullaxo‘jayeva, N.Bekova, O.Davlatov, D.Yusupova, Z.Isaqova, N.Bozorovalar tomonidan muvaffaqiyatli davom ettirildi va bugungi kunda yoshlar ham n. shunoslikka oid dolzarb mavzularda tadqiqotlar olib bormoqdalar.

VIII. Mustaqillik davri n.shunosligi. istiqlol yillarida N.ga davlat miqyosida ahamiyat berilayotgani tufayli n.shunoslikda sifat o‘zgarishlari vujudga kelmoqda, tadqiqotlarda ilmiy xolislik va nazariy teranlik ko‘zga tashlanmoqda, olimlar shoir ijodini jahon so‘z san’ati kontekstida olib o‘rganishga kirishmoqdalar. Zero, N. faqat o‘zbeklar yoki turkiy va forsiy xalqlarning emas, balki barcha jahon xalqlarining shoiri, u dunyoviy miqyosdagi tafakkur sohibi. U o‘z asarlarida bashariy muammolarni ko‘tarib chiqqan, umuminsoniy qadriyatlarni ulug‘lagan, jahonshumul masalalarni yechishga uringan. Binobarin, shoir asarlarining xalqaro andozalar asosida yangicha nuqtayi nazardan o‘rganilishi, N.ning falsafiy qarashlari, merosining diniy-tasavvufiy mohiyati, badiiyatini tadqiq etishga qiziqishning ortishi N. dahosini butun ulug‘vorligi b-n anglashga imkon yaratishi shubhasiz.

Istiqlol davri n.shunosligining yutuqlari sifatida A.Hayitmetovning “Navoiyxonlik suhbatlari” (1993), S.G‘aniyevaning “Navoiy nasri nafosati” (2000), A.Qayumovning “Dilkusho takrorlar va ruhafzo ash’orlar” (2011), A.Hojiahmedovning “Navoiy aruzi nafosati” (2006), R.Vohidovning “Navoiy va ilohiyot” (1996), N.Komilovning “Xizr chashmasi” (2008), I.Haqqulning “Navoiyga qaytish” (1-kitob, 2007, 2-kitob, 2011, 3-kitob, 2016, 4-kitob, 2021), S.Olimning “Ishq, oshiq, ma’shuq” (1992), Sh.Sirojiddinovning “Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik talqini” (2011), “Amir Alisher” (2023), A.Abduqodirovning “Amir Alisher Navoiy” (2003, 2013), Q.Ergashevning “Некоторая государственная деятельность Алишера Навои” (2009), “Alisher Navoiyning nasriy uslubi masalalari” (2021), B.Rajabovaning “So‘zlar bilan so‘zlashuv” (2023), Alisher Navoiy Xalqaro jamoatchilik fondi tashabbusi

bilan nashr etilgan 30 jildlik “Istiqlol davri o‘zbek navoiyshunosligi” (2021) kitoblarini ko‘rsatish mumkin. Bu tadqiqotlar shoir ijodi istiqlol mafkurasi asosida har tomonlama chuqur va xolis tekshirilgani b-n katta ahamiyat kasb etadi.

E.O., M.A.

O‘N KANIZAK – “F.Sh.” dostonida tasvirlangan Mehinbonu saroyidagi o‘n kanizak: Dilorom, Diloro, Diloso, Gulandom, Sumanbo‘y, Sumanso, Parichehra, Parizod, Parivash, Paripaykar. Ularning nafaqat ismi go‘zal, jismi ham har qanday ta’rifdan ustun turadi: *“Bari ham sarvqomat, ham dilorom”*. Buning ustiga, ularning har biri bir sohada tengsiz: biri she’r, biri musiqa, biri tarix, biri hisob, biri mantiq (logika), biri nujum (astronomiya), biri balog‘at (adabiyot nazariyasi), biri hikmat (falsafa), biri haqoyiq (mavjudot haqiqatlari haqidagi fan), biri muammo yechishda o‘z davrining eng oldi bo‘lgan: bu fanlarning yuzlab ustasidan bularning bittasi mohirroq edi:

Bu fanlarda bular bir-birdin ahsan,
Yuz fanliq aro har qaysi yakfan.

Lekin shoir ularning qaysi biri qaysi sohada mohirligini aniq qilib ko‘rsatmagan – biri u-biri bu hunarda mumtoz deb umumiy yo‘sinda ta’kidlab o‘tadi. Nomlar va hunarlar ketma-ketligi bo‘yicha Dilorom “ash’or bahri ichra g‘avvos”; Diloro “advor davri ichra raqqos”; Diloso “mantiq rusumida raqamkash”; Gulandom “hay’at ruqumig‘a qalamkash”; Sumanbo‘yning “shevasi ilmi haqoyiq”, Sumanso “Balog‘atda... aytib daqoyiq”; Parichehra tarix fanida tengsiz; Parizod “hikmat fani ichra yagona”; Parivash hisob fanida mohir; Paripaykar muammo ilmida yagona bo‘lib chiqadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011.*

M.M.

O‘N SAKKIZ MING OLAM – tasavvuf she’riyatidagi poetik obrazlardan biri. Diniy nuqtayi nazardan ham, oddiy odamlar tushunchasida ham O‘.S.M.O. ifodasi olamning ko‘pligini ifodalaydi. N. ijodida ham ko‘p qo‘llangan. M-n:

O‘n sakiz ming olam *oshubi*
agar boshindadur,
Ne ajab, chun sarvinozim
o‘n sakiz yoshindadur…
Navoiy ***o‘n sakkiz ming olam*** *ichra*
bor esa rasvo,
Tong ermas, chunki bo‘lmish
mahvashining yoshi o‘n sakkiz.

Olamlar sonining o‘n sakkiz mingga yetkazilishi to‘qqiz falak, anosiri arba’a, mavolidi salosa, inson va insoni komilning yig‘indisidir. Bularning jami o‘n sakkiz, zuhur e’tibori ila har biri mingdan bo‘lib, O‘.S.M.O. hosil bo‘ladi. Chunki qadimda arablar hisobiga ko‘ra, ming eng oxirgi raqam sanalgan, har bir olam mingga qadar ziyod qilinib, O‘.S.M.O. ifodasi hosil qilingan. N. bunga boshqacharoq yondoshadi. Shoir nazarida “O‘.S.M.O.” to‘rt unsur, yetti ko‘k, olti jihat va insondan iboratdir:

To‘rt unsur*,* ***yetti ko‘k, olti jihot*** *–*
Nodiru oliy asosi koinot.
Barchadin ashrafki ul ***inson*** *erur,*
Chun kamolida xirad hayron erur.

Aslida O‘.S.M.O. ifodasi tasavvuf ta’limoti zamirida yuzaga kelgan bo‘lib, Haq oshiqlarining siyrat olamiga daxldordir. O‘.S.M.O. iborasi sufiylik zaminida yuzaga kelganligi bois unga juda ko‘p ma’nolar singdirilgan. Alloh ilk tajalliysi b-n Aqli kull (Muhammad nuri)ni yaratgan. Aqli kull tajalliylaridan boshqa maxluqotlarni bino qilgan. Nuri Muhammadiya navbati b-n ruhlar olami (nafsi kull), tabiat, xayyula, jismi kull, shakl, arsh, atlas falagi, manozil falagi, yetti ko‘k, yetti qat yer va mavolidi salosa (ma’dan, o‘simlik, hayvonot) martabalarida

zuhur etganki, bular O‘.S.M.O.ni tashkil etgan. Demak, O‘.S.M.O. tushunchasi insonning kamol martabalari b-n bog‘liq. Shu haqiqatga asoslanib, mutasavvuf ijodkorlar nazdida O‘.S.M.O. insonga tegishli bo‘lib, bu uning o‘n sakkiz ming sifatidir. Bulardan olti mingi nabototga, olti mingi hayvonotga, olti mingi insonga taalluqli. Bular esa bir-biridan ayri emas, N. quyidagi baytlarda yuqorida qayd etilgan haqiqatlarning deyarli barchasi e’tiborga olingan va o‘zining badiiy ifodasini topgan:

Haq vujudi keldi bahri bekaron,
Mavji oning ofarinishdin ayon.
O‘n sakkiz ming olam ichra har ne bor,
Kim qilurlar ahli ma’ni e’tibor.

Ad.: *Adham Jabachi o‘g‘li. Tasavvuf terminlari lug‘ati. – Anqara, 1979; Маҳмуд Байроқдор. Тасаввуф ва замонавий илм. – Истанбул, 1989; Гулпинарли А. Маснавий таржимаси ва шарҳи. – Истанбул, 1990; Ҳужвирий. Кашфул маҳжуб. – Истанбул, 1996; Исҳоқов Ё. Ўн саккиз минг олам асрори. “Навоийга армуғон”. 3-китоб. – Т., 2003; Ҳаққул И. Тасаввуф ва шеърият. – Т., 1991.*

S.J.

O‘TEPBERGENOV Abulqosim (1951) shoir.

Shuningdek, yozuvchi, publitsist ham tarjimon. Turkmanistonning Ko‘hna Urganch shahrida tug‘ilgan. Qoraqalpoq davlat pedagogika institutini tamomlagan. “Erkin Qaraqalpaqistan” gazetasida bo‘lim mudiri, “Amudaryo” jurnalida bosh muharrir lavozimlarida ishlagan. Qoraqalpog‘iston teleradiokompaniyasida muharrir bo‘lib ishlagan. Shoirning “Tomchilar”, “Bulaqlar”, “Dunyo bir ajoyib joydir”, “Allohingni unutma”, “Sharq ohanglari” va boshqa she’riy to‘plamlari bosilgan. “Do‘zax ichida” romani, bir necha hikoyalar turkumi o‘quvchilarga ma’lum. Hozirgacha “Saylanma”larining olti jildligi e’lon qilindi.

O‘.A., asosan, Sharq mumtoz adabiyoti an’analari ruhida she’rlar yozadi. Hofiz, U.Xayyom, Jomiy, Lutfiy, Navoiy, Mashrab, Maxtumquli, Andalib, Bobur, Ogahiy, Mullanafas, Furqat, Ajiniyoz g‘azallariga muxammaslar bog‘lagan. N.ning yigirmaga yaqin she’rlariga muxammaslar bog‘lab, naziralar yozgan. N.ning ba’zi g‘azallarini qoraqalpoq tiliga o‘girgan. N. ijodi haqida maqolalari ham bor. U turkman va o‘zbek adabiyotlaridan bir necha asarlarni qoraqalpoq tiliga tarjima qildi. O‘.A.ga “Qoraqalpog‘istonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi” faxriy unvoni berilgan.

K.Q.

O‘TTIZ QADAH – (Q.: To‘qqiz qadah).

G‘

G‘AVS – madadkor, qo‘llovchi ma’nolarini anglatuvchi so‘z bo‘lib, dunyo sirlaridan voqif, Alloh tomonidan saylangan ma’naviy qo‘riqchilardan. Qutb, abdol, avtod, nujabo, nuqabo kabilar qatorida G‘. ham bo‘lib, yordam beruvchi degan ma’noni anglatadi. G‘. obrazi ko‘proq xalq og‘zaki ijodi namunalari, manoqib, tazkira, shuningdek, dostonlarda uchraydi. G‘. larga tayyi makon va zamon rutbasi berilganligi, har vaqt tilasa, g‘oyib bo‘lib va har vaqt tilasa, hozir bo‘lish fazilatlari xususida “N.M.” tazkirasida keltiriladi: “Pas, men va Ibn Saqqo va Shayx Abdulqodir va ul hanuz yigit erdi, g‘avs ziyoratiga borduq. Yo‘lda Ibn Saqqo dediki, men andin mas’ala so‘rg‘umdurki, javobin bilmagay. Men dedim: mas’ala so‘rg‘umdur, to ne degay? Shayx Abdulqodir dediki, ma’ozalloh, andin nima so‘rg‘aymen, men borurmen va aning barakoti intizorin tortarmen. Chun aning qoshig‘a kirduk, ani o‘rnida ko‘rmaduk. Bir zamon o‘lturduk, ko‘rdukki o‘z o‘rnida o‘lturubdur. Pas g‘azab bila Ibn Saqqog‘a boqib dediki, ey Ibn Saqqo, mendin mas’alae so‘rarsenki, men ma’nosin bilmag‘aymen? Ul mas’ala budur va javobi bu: Men ham ko‘radurmenki, kufr o‘ti sendin zabone uradur. Andin so‘ngra manga boqdi va dediki, ey Abdulloh, mendin mas’alaye so‘rarsen va ko‘rarsenki, ne dermen. Ul mas’ala budur va javobi bu: Har oyina dunyo seni qulog‘ingg‘acha bosa olg‘ayki, mening bila beadablig‘ qilding! Andin so‘ng Shayx Abdulqodirg‘a boqdi va dediki, Xudoy va Rasulni xushnud qilding, adab jihatidinki, asrading, go‘yoki ko‘rarmenki, Bag‘dodda minbar qo‘yarsen va chiqib aytursenki, “shu oyoqlarim har bir Alloh valiysining bo‘ynidadir”. Haqiqatan, G‘.ning karomat ila so‘zlaganlari Abdulqodir Giloniy hayotida ro‘y beradi va *“g‘avs ul-a’zam”,* ya’ni *“buyuk madadkor”* laqabiga ega bo‘ladi. G‘.larning himmatidan umidvor bo‘linadi, ammo barchasi Allohning xohish irodasi ekanligini ahli ilm ta’kidlashadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

Z.R.

G‘AZAL (ar. − ayolni sevish, unga oshiqona munosabatda bo‘lish) − Sharq adabiyotida eng keng tarqalgan lirik janr. G‘. termini dastlab VI–VII asrlarda arab she’riyatida paydo bo‘lgan. So‘ng O‘rta Osiyo va Sharq xalqlari adabiyotlariga o‘tib, XIII–XIV asrlarda to‘la shakllangan. Hajmi 3 baytdan 19 baytgacha qilib belgilangan. Lekin 21, hatto 27 baytli g‘azal namunasi uchraydi. *aa, ba, va, ga, da* va hokazo tarzda qofiyalanadi, boshdan oxir bir vaznda yoziladi. Ilk bayti **matla’** yoki **mabda’**, oxirgisi **maqta’** yoki **xotima** deb ataladi. Agar ikkinchi baytning misralari ham o‘zaro qofiyalansa, **zebi matla’** yoki **husni matla’** deyiladi. Xalq orasida G‘. so‘zi umuman she’r, she’riyat va qo‘shiq ma’nosida ham qo‘llangan. G‘.ning paydo bo‘lishi va rivojlanishi musiqa san’ati b-n chambarchas bog‘liq. Dastlab g‘azalga taxallus qo‘yilmagan, bu keyinchalik an’anaga aylangan.

G‘. dastlab ishqiy mavzuda yozilgan bo‘lsada, keyinchalik uning mavzu doirasi kengayib bordi hamda ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-axloqiy, mav’iza (pand-nasihat) va hajviy g‘azallar yuzaga keldi. G‘.lar tuzilishiga ko‘ra, 4 mustaqil turga

ajraladi: 1) Mustaqil baytlardan tuzilgan (parokanda) G‘.lar; 2) Yakpora G‘.; 3) Voqeaband G‘.; 4) Musalsal G‘. Ma’no jihatidan esa orifona, oshiqona va rindona G‘.larga bo‘linadi.

Fors so‘z san’atida G‘.lar dastlab Rudakiy ijodida uchrasa-da, Sa’diy ijodida to‘la shakllanib, she’riyatning asosiy janrlaridan biriga aylandi, keyin Hofiz uni yuksak darajaga ko‘tardi: o‘zigacha tasavvufiy va dunyoviy yo‘nalishda rivojlanib kelgan G‘.chilikni o‘zaro omixta qildi. Xusrav Dehlaviy, Kamoliddin Isfahoniy, Farididdin Attor, Jaloliddin Rumiy, Xoju Kirmoniy, Salmon Sovajiy, Abdurahmon Jomiy, Mirzo Abdulqodir Bedil kabi zabardast shoirlar G‘. taraqqiyotida katta rol o‘ynaganlar. O‘zbek adabiyotida G‘.ning ilk namunalari Rabg‘uziyning “Qisasi ar-Rabg‘uziy”, Xorazmiyning “Muhabbatnoma”sida uchraydi; keyinchalik Sayfi Saroyi, Hofiz Xorazmiy, Yusuf Amiriy, Sakkokiy, Atoiy, Gadoiy, Lutfiy, N., Bobur, Ubaydiy, Mashrab, Mujrim-Obid, Amiriy, Nodira, Uvaysiy, Munis, Ogahiy, Muqimiy, Furqat, Avaz O‘tar va boshqalar ijodida rivojlantirildi.

Fors-tojik G‘.chiligida aruz vaznining hazaj bahri, turkiy xalqlar G‘.chiligida ramal bahri ko‘p qo‘llangan. M-n, N.ning 2600 G‘.laridan 1600 ga yaqini, Atoyining 260 G‘.laridan 109 tasi, Husayn Boyqaroning esa barcha G‘.lari ramalda yozilgan. Aruzda 21 ta bahr bo‘lib, o‘zbek g‘azaliyotida faqat N. ularning ko‘pchiligini qo‘llagan. G‘.da ishqiy mavzu yetakchilik qilishiga qaramay, G‘.navislar bu janrning imkoniyatlaridan inson ma’naviy dunyosining, shuningdek, tabiat va jamiyatning barcha murakkab tomonlarini ifodalash u-n foydalanganlar.

XV asrdan G‘. o‘zbek she’riyatida ham asosiy va yetakchi janrga aylandi. N. o‘zbek tilida 2600 dan ortiq G‘. yaratib, bu janrning g‘oyaviy-mavzuiy doirasini kengaytirdi, G‘.ni hayotga yaqinlashtirdi, G‘.da realistik tamoyillarni kuchaytirdi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Мирзаев А.М., Рудаки и развитие газели в X–XV вв. – Д., 1958; Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. – Т., 1961; Шайхзода М., Ғазал мулкининг султони. Асарлар. 4-жилд. – Т., 1972; Носиров О. Ўзбек адабиётида ғазал. – Т., 1972; Орзибеков Р., Ўзбек лирик поэзиясида ғазал ва мусаммат. – Т., 1976; Носиров О., Жамолов С., Зиёвиддинов М., Ўзбек классик шеърияти жанрлари. – Т., 1979; Жумахўжа Н., Сатрлар силсиласидаги сеҳр. – Т., 1996.*

E.O.

“G‘AZALDA UCH KISHI” – N.ning “F.K.” devoniga kiritilgan qit’asi:

G‘azalda uch kishi tavridur ul nav’
Kim, andin yaxshi yo‘q nazm ehtimoli.

Biri mu’jiz bayonlig‘ sohiri hind,
Ki ishq ahlini o‘rtar so‘z-u holi.

Biri Iso nafaslik, rindi Sheroz,
Fano dayrida mast-u louboli.

Biri qudsi asirlik orifi Jom,
Ki, jomi Jamdurur sing‘an safoli.

Navoiy nazmig‘a boqsang, emastur,
Bu uchning holidin har bayti xoli.

Hamono ko‘zgudurkim, aks solmish,
Anga uch sho‘x mahvashning jamoli.

Ushbu qit’ani hazrat N. g‘azalchilikdagi ustodlari ta’rifiga bag‘ishlagan. Birinchi baytdagi fikr umumiy. Unda g‘azalda uch kishining uslub va ravishi yaxshi ekanligi, ulardan o‘tkazib she’r yaratish mushkul ishligi ta’kidlangan. Keyingi ikki qator shu uch g‘azal ustasining biri haqida:

Biri mu’jiz bayonlig‘ sohiri hind,
Ki ishq ahlini o‘rtar so‘z-u holi.

Bu “sohiri hind” – Xusrav Dehlaviy. Shu bir baytda Dehlaviy iste’dodiga xos muhim fazilat-

lar aytilgan. Birinchidan, u she'rda ifoda siqig'ligi, ya'ni "mu'jiz bayonliq"qa erishgan. Shu mahorati tufayli uning o'zi sohir, so'zlari sehrli. Ikkinchidan, bu shoirning qalbi yolqinli. Ruh va holatlarida ham so'zonlik aks etadiki, bular ishq ahlining bag'rini o'rtaydi. Navbatdagi satrlarni o'qiymiz:

Biri Iso nafaslik rindi Sheroz,
Fano dayrida mast-u louboli.

Iso (a.s.) – rivoyatlarga binoan, nafasi b-n o'likni ham tiriltira biladigan payg'ambar bo'lganmish. N. Isoga o'xshatayotgan "rindi Sheroz" – nafasi o'tkir buyuk fors shoiri – Xoja Hofiz Sheroziydir. U fano mayxonasining rindi. Rindligi u-n ham ko'ngli o'tkinchi dunyoning o'tkinchi g'am-u tashvishlaridan forig'. Hofizning g'azaliyoti murda ko'ngillarni ham tiriltiruvchi xayoliy ohanglari, haqiqat mayi madh etilgan ma'nolari b-n she'rxon yuragiga larza soladi.

Biri qudsi asirlik orifi Jom,
Ki, jomi Jamdurur sing'an safoli.

Bu bayt Abdurahmon Jomiy madhiga bag'ishlangan. Bunda Jomiy birinchidan, pokizalikka (qudsi asirlik) namuna qilib ko'rsatilgan. Ikkinchidan, u Jom shaxsidan yetishgan orif, haq ilmining allomasi. Shuning uchun ham uning oddiygina safol idishi (hatto singan safoli) shoh Jamshidning o'sha mashhur Jomi b-n tengdir. Bu obrazli fikr bevosita Jomiyning ijodiyotiga ham tegishlidirki, uning "sing'on safoli"dan zavq va ma'rifat simirgan kishilarning orifga aylanmasligi mumkin bo'lmagan holdir.

Navoiy nazmig'a boqsang, emastur,
Bu uchining holidin har bayti xoli.

Demak, hazrat N. she'riyatiga nazar tashlagan kishi "bu uchlikning", ya'ni Xusrav Dehlaviy, Hofiz Sheroziy va Abdurahmon Jomiylarning ta'sirini seza oladi. Bobomiz qit'a so'ngida o'z she'riyatini ko'zguga, ustozlarini esa shu ma'naviy oynaga jamoli aks etgan uch "mahvash"ga nisbat berganlar:

Hamono ko'zgudurkim, aks solmish,
Anga uch sho'x mahvashning jamoli.

Bu qit'a faqat ustozlarga hurmat-ehtirom ma'nosidagina emas, do'stlikni ulug'lashi jihatidan ham ibratlidir. Axir, unda ta'riflari bitilgan uchala shoir ham forsiy adabiyotning o'lmas vakillaridir.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ҳолоти Саид Ҳасан Ардашер. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ҳолоти Паҳлавон Муҳаммад. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

I.H.

G'AZZOLIY (taxallusi; to'liq ismi: Abu Homid Muhammad ibn Muhammad Tusiy) (1058–1111, Tus) – ilohiyot olimi, tasavvuf nazariyotchisi, faylasuf, faqih. Tug'ilgan shahrida ta'lim olib, keyin Nishopurda ash'ariy maktabi ulamosi Juvayniy qo'lida tahsil ko'rgan. Bag'dodda saljuqiylar vaziri Nizomulmulk huzurida xizmat qilgan. Bu haqda N. "N.M."da shunday yozadi: "Jamoati fuzalo bilaki, oning suhbatida bo'lar erdilar, mutaaddid majolisda munozara va mujodala qildi va alarg'a g'olib bo'ldi. Va Bag'dodda Nizomiya madrasasi tadrisin anga tafviz qildilar. To'rt yuz sakson to'rtda (milodiy 1091) Bag'dodga borib dars aytdi va Iroq ahli barcha anga shefta va firifta bo'ldilar. Baland qadr, arjumand poya topti". 1091–1095-yy.da Nizomiya madrasasida dars bergan. Ismoiliylar Nizomulmulkni o'ldirganlaridan keyin haj bahonasida Bag'dodni tark etib, 1096–1106-yy. da Sharqning Shom, Bayt ul-muqaddas, Iskandariya shaharlarida bo'lgan. Damashq va Tusda yashagan. Nizomulmulkning o'g'li Faxrulmulk

taklifiga koʻra, 1106–1110-yy.da Nizomiya madrasasida tagʻin mudarrislik qiladi. Umrining oxirida Tus yaqinidagi tugʻilgan qishlogʻi Gʻazzolaga qaytib, shu yerda xonaqoh tashkil etadi. N. ta'biri bilan aytganda, "xalqdin xilvat ixtiyor qildi va mufid kitoblar tasnif qildi".

Asosiy asarlari: "Ihyo-yu ulum id-din" ("Diniy ilmlarni tiriltirish"), "Kimyoyi saodat" ("Saodat kimyosi"), "Maqosid ul-falsafa" ("Falsafa maqsadlari"), "Tahofut ul-falosifa" ("Faylasuflarni rad etish"), "Nasihat ul-muluk" ("Hukmdorlarga nasihat").

Gʻ. oʻz asarlarida islom ilohiyoti tizimini ishlab chiqib, uni falsafiy jihatdan asoslashga intilgan, islom va tasavvufni oʻzaro qoʻshib talqin etgan. Chunonchi, "Ihyo-yu ulum id-din" asarida tasavvuf va islomni murosaga keltirib, bir-biriga chambarchas bogʻladi. Shundan soʻng tasavvuf tariqatiga kiruvchilar u-n shariatga rioya etish qat'iy qonunga aylandi. Gʻ. fanoni tasdiqlasa-da, Mansur Halloj olgʻa surgan hulul, ya'ni soʻfiyning Allohga qoʻshilib, singib ketishini rad etadi. Gʻ. fikricha, fano Allohga ruhan yaqinlashish, xolos. U Aristotelning Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino kabi Sharqdagi izdoshlari b-n olamning yaratilganligi, koinot abadiyligi, ruhning oʻlmasligi muammolari, sababiyat nazariyasi va h.k. boʻyicha bahs yuritgan. Islom tafakkuri va oʻrta asr Yevropa falsafasiga barakali ta'sir koʻrsatgan.

Qur'onni mukammal sharhlab, islom qoidalarini ilmiy asoslab bergani u-n zamondoshlari tomonidan "Hujjat ul-islom" ("Islom dalili") deb ulugʻlangan.

Gʻ.ning "Kimyoyi saodat" asari XIX asrda Sharqiy Turkistonda Muhammad Iso tomonidan oʻzbek tiliga oʻgirilgan. Yangi davrda Alouddin Mansur va Rashid Zohidlar undan parchalar tarjima qildilar. M.A'zam va H.Boltaboyevlar ham "Mukoshafat ul-qulub" va "Ihyo-yu ulum id-din" asaridan parchalarni ularning turkiy tarjimasidan oʻzbekchalashtirganlar.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Абдураҳмон Жомий. Нафаҳот ул-унс // Осор. Дар 8 жилд. Жилди 8. – Душанбе, 1990; Ислом. Энциклопедия. – Т., 2004; Абдуқодиров А. Тасаввуф истилоҳларининг қисқача изоҳли луғати. 1-китоб. – Хўжанд, 1997; Зайниддин Муҳаммад Ғаззолий. Кимёи саодат. – Т., 1995; Муҳаммад Абу Ҳомид Ғаззолий. Иҳёу улуму ид-дин // "Ёшлик", 1990, 6-сон, Ислом тасаввуфи манбалари. – Т., 2005. Абу Ҳомид Ғаззолий. Тавба китоби. – Т., 2003; Муҳаммад Ғаззолий. Рубоийлар // Донишмандлар туҳфаси. – Т., 2009.*

E.O.

Gʻ AZZOLIY AHMAD (XI asr, 2-yarmi, Tus – 1124, Qazvin) – tasavvuf olimi, mutasavvif shoir. Shayx Abubakr Nassojning muridi boʻlib, moʻtabar asarlari bor. Jumladan, "Savoneh" ("Hodisalar") kitobi nihoyatda mashhur boʻlgan. Faxriddin Iroqiy "Lama'ot" ("Shu'lalar") asarini uning ta'sirida yaratgan. "N.M."da yozilishicha: "Savoneh" fuzulidin biri budurkim, ma'shuqa barcha holi b-n ma'shuqdir, bas istigʻno aning sifatidur. Va oshiq barcha holi bilan oshiqdur, bas iftiqor aning sifatidur. Oshiqqa hamisha ma'shuq keraklik, bas, iftiqor aning sifatidur. Va ma'shuqqa hech nima darboist emas, chunki oʻzi oʻziningdur, lojaram istigʻno aning sifati boʻlgʻay".

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Аҳмад Ғаззолий. Рубоийлар // Донишмандлар туҳфаси. – Т., 2009.*

M.A.

Gʻ AYB – lugʻatlarda hozir emaslik, gʻoyiblik, koʻzga koʻrinmaslik; 2. Sir, yashirinlik kabi ma'nolarda irzohlanadi. Gʻ. – Alloh taologa ma'lum, bandalaridan yashirgan sirdir. Bu haqida bir necha oyatlar nozil boʻlgan: "Alloh paygʻambarlarini toʻplab: "Sizlarga (ya'ni, qilgan da'vatingizga ummatlaringiz tomonidan) qanday javob boʻldi?" – deb soʻraydigan kunida, ular: "Biz bilmaymiz. Faqat

Sening O‘zinggina g‘ayb ilmlarining bilimdonisan”, deydilar (Moida: 109)”. N. asarlarida ham barcha sirlardan ogoh – Olim ul- g‘ayb deya Alloh nazarda tutiladi. “S.I.” dostonida Sulton Abu Said Ko‘ragon ta’rifida shunday bayt bor:

*Hunar ko‘p berib **olimul-g‘ayb** anga,*
Vale bor edi bir ajab ayb anga.

Ki, maxzan yig‘org‘a solib maylini,
Tutar erdi tanqis ila xaylini.

G‘., hatto payg‘ambarlarga ham ma’lum emasligi Qur’oni Karimda ta’kidlanadi: “Ayting (ey Muhammad): “Sizlarga: “Huzurimda Allohning xazinalari mavjud”, demayman va g‘aybni ham bilmayman. Yana sizlarga: “Men farishtaman”, ham demayman. Men faqat o‘zimga vahiy qilingan narsalargagina ergashurman”. Ayting: “Ko‘r bilan ko‘rguvchi (ya’ni yo‘lsiz bilan Allohning yo‘lida yurguvchi) kishi barobar bo‘lurmi?! Tafakkur qilmaysizlarmi?! (An’om: 50)”. Inson Robbining lutfi marhamati ila U bildirgan ba’zi narsalarnigina bilishi mumkin, xolos. Bu “Ilhomi g‘ayb” deyiladi. Tasavvuf ahlining nuqtayi nazari bo‘yicha, basiratning ochilishi avval ko‘zdan boshlanadi. Keyin navbatma-navbat yuz, ko‘krak va butun vujudda yuzaga chiqadi. Basirati – ko‘ngil ko‘zi to‘la ochilgan kishiga “Shayx ul g‘ayb” nomi berilgan. Mana shunday qalblariga vorid inib, ilhom nasib etgan valiy zotlar haqidagi “N.M.” tazkirasida N. Hofiz Sheroziy (q.s.) haqida: “Alar *lison ul-g‘ayb* va tarjumon ul-asrordurlar. Baso asrori g‘aybiya va maoniyi haqiqiyyaki, surat kisvatida va majoz libosida ado qilibdurlar. Agarchi ma’lum emaski, alar irodat iliki bir pirga bermish bo‘lg‘aylar va tasavvuf tariqida bu toifadin biriga nisbat durust qilmish bo‘lg‘aylar. Ammo so‘zlari andoq bu toifa mashrabi bila muvofiq voqe’ bo‘lubdurki, hech kishiga andoq ittifoq tushmaydur”, – deydi. Ta’kidlash joizki, basirati ochiq, ko‘ngil kashfiga erishgan zotlar G‘. haqiqatlaridan bahs etadi. Yaratgan sirlaridan bandalarini ogoh etib, hidoyatga undaydi. Ilohiy sirlardan xabar beruvchi ilm “Ilm g‘ayb” yoki “Ilmi laduniy” deyilgan.

“Ayting: “(Xohlagan) amalni qilinglar. Bas, Alloh, Uning payg‘ambari va mo‘minlar qilgan amallaringizni ko‘rib turar va yaqinda g‘ayb-u shahodatni (ya’ni, yashirin va oshkor narsalarning barchasini) bilguvchi zotga qaytarilursizlar. Bas, U zot sizlarga qilib o‘tgan amallaringizning xabarini berur” (Tavba: 105) oyatlarga ko‘ra, ilm ahli olamni insonlar ko‘zidan yashirin ma’naviy olam – G‘. olami, ko‘rinuvchi ma’lum olamni esa shahodat olami, deya ikkiga ajratishgan. “N.M.” tazkirasida qalb ko‘zi ochilgan basirat ahli karomatlaridan so‘z yuritiladi. Shayx Alouddavlaning quyidagi e’tirofi bunga dalildir: “G‘aybda ko‘rdumki, Haq (s.t.) manga ayturki, sen bilmassanki, har hasratki Imom G‘azzoliyg‘a bor, mundin ortuq yo‘qdurki, sulukni tugatmay bizing xizmatimizg‘a keldi. Andin so‘ngraki ul g‘aybdin keldim, o‘z tilimda uqdaye toptim va xomushlik pesha qildim va o‘z ishimga mashg‘ul bo‘ldum”. Insonlarda g‘aybni bilishga, uni idrok etishga bir mayl, fitriy bir intilish hamisha bo‘lgan. Shu bois nafsni tazkiya etishga harakat qilishgan. Nafsni tarbiya etgan solih qullar – olami kubroga aylanishgan. Ularning qalbida kashf-u karomat paydo bo‘lib, olami sug‘ro mujassamlashgan. Zero, poklangan nafs natijasida ziynatlangan ko‘ngil oynasida g‘ayb bitilmish Lavh ul-mahfuz ko‘rina boshlagan. G‘.ning Lavh ul-mahfuzda bitilgani haqidagi xabardan: “Balki ularning oldilarida g‘ayb (ya’ni g‘aybda bo‘ladigan barcha ishlar bitilgan Lavhul-Mahfuz) mavjud bo‘lib, ular (aytayotgan so‘zlarini o‘shandan) yozib olayotgandirlar?! (Nun: 47)” kabi oyatlar orqali ogohlantiriladi. Ammo ko‘ngilni 7 darajasini ko‘rsatgan ahli tasavvuf oltinchi maqomini g‘aybiy mukoshafa joyi – Suvaydo deya, Odam avlodlarining imkoniyatlari, ularning ilmdan nasibalanish imtiyozlarini ko‘rsatishgan. N.ning shunday qahramonlaridan biri “L.T.” dostonidagi Shayx San’ondir:

Shayx San'on vosili dargoh edi,
Ko'ngli g'ayb asroridin ogoh edi.

G'.ga ishonmoq kamolotning shartlaridan biridir:

Yugurma rizq uchun, ne yetsa
Haqdin anglakim, komil
Ne kelturgil demish, ne g'aybdin
yetganni qaytormish.

Inson qadarga inonmog'i, shodlig-u kulfatni birday qabul qilishi G'., ya'ni Allohga ishonmog'i, tom tavakkulidandir.

Mumtoz adabiyotda inson a'zolarining har biri ma'lum bir ramzdir. Jumladan, yorning og'zi – Sirri G'.dan nishona hisoblanadi. Ma'shuqa labi haqidagi ta'rif-tavsif G'.ga oshnolikka ishoradir:

G'ayb sirridin berib og'zi nishon,
O'zi g'ayb ahlidek, ammo benishon.

"B.V." devonida esa boshqa bir ifodaga duch kelinadi:

Og'zi ramzig'a agar yo'l topmadim, ermas ajab,
G'ayb sirrig'a ne tong el topmamaq oson vuquf.

Ma'naviy olamni qo'riqlovchi Allohning mumtoz qullari G'. eranlari – rijol ul-g'ayb deyilgan. N. Abubakr Qasriy (q.t.s.) haqidagi ta'rifda G'. ahli iborasini qo'llab, shunday valiylar jamoasiga ishorat qiladi: "Hubayra qasridin erdi, valiy va g'ayb ahlini ko'rar erdi".

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

Z.R.

G'ANI ABDULLO (11.03.1912–28.01.1984, Samarqand) – tojik dramaturgi, shoiri, tarjimoni. Tojikiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan san'at xodimi. 1932-y.da O'zbekiston pedakademiyasining adabiyot fakultetini tugatgan. Tojikiston Respublikasi Maorif komissariyatining ilmiy-tadqiqot institutida ishlagan. Tojikiston Yozuvchilar uyushmasi kotibi bo'lgan (1934–1937). Keyin Tojikiston akademik teatrida adabiy emakdosh bo'lgan.

G'.A. 30-yy. boshida o'zbek tilida she'r-u dostonlar yozgan. Tojik tilida ham ijod qilgan. Adabiy maqolalari ham bor. So'ng dramaga qo'l urgan. "Vaxsh" (1933), "Baxt vodiysi" (1936), "Vose' isyoni" (1936), "Rustam va Suhrob" (1937), "Inson sharafi" (1956), "Tog'lar navosi" (1957), "To'fon" (1957, hammualliflikda), "Hurriyat" (1964), "Inqilob chavandozlari" (1970), "Umid yulduzlari" (1975), "Tong qushi" (1980) kabi zamonaviy va tarixiy mavzulardagi dramalar muallifi.

G'.A. "Jomiy va Navoiy" (1969) dramasini yaratgan. Unda ikki xalqning buyuk farzandlari o'rtasidagi bebaho do'stlik tarannum etiladi. U N.ga bag'ishlab qator she'rlar ham yozgan.

Ad.: *Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 3. – Душанбе, 2004.*

E.O.

G'ARB-U SHARQ (g'arb va sharq yoki sharq va g'arb) – xalq tilida va adabiy asarlarda keng qo'llanadigan ibora. G'arb – dunyoning to'rt tomonidan biri, sharqqa qarama-qarshi quyosh botadigan, kunbotar tomon. Sharq – ko'tarilish, dunyoning to'rt tomonidan biri, g'arbga qarama-qarshi bo'lgan, kunchiqish tomon. Jahon adabiyoti tarixida ijodkorlar o'z asarlari, she'riy devonlarini "G'arb-u sharq" nomi b-n ham atashgan. M-n, I. V. Gyotening "G'arb-u sharq" devoni.

N. "S.I."ning "So'z vasfi..." nomli bobida:

Ichar xayl so'z bodayi sofini,
Demak, farz keldi so'z avsofini.

deb so‘zni, so‘z sehri va qudratini vasf, shayx Nizomiy va Mir Xusrav kabi xamsanavis ustozlarini madh qilar ekan, *g‘arb-u sharq* iborasini topib qo‘llaydi. So‘z gavharidan kunbotar-u kunchiqish to‘ldi, lekin qiymatida katta farq bor. So‘z tarixida kimdir mayda chaqaga arziydigan so‘z aytuvchi bo‘ldi, pastladi, kimdir esa oltin beruchi, qimmatli, chuqur ma’noli so‘z aytuvchi bo‘ldi va g‘arb-u sharqda shuhrat qozondi, degan ijtimoiy fikrlarini bayon qiladi. N. o‘zining ijtimoiy fikrlari isboti u-n so‘z ustalaridan shayx Nizomiy va Mir Xusrav Dehlaviylarning so‘z qo‘llashdagi mahoratiga urg‘u beradi va ular o‘z “Xamsa”lari b-n g‘arb-u sharqni egallagan, degan e’tirofini ham nazm iplariga teradi:

*Bu gavhardin o‘ldi to‘la **g‘arb-u sharq**,*
Vale topti qiymatda bisyor farq.
Birovga yetishgonga qiymat pashez,
Yana birga qiymat kelib ganjxez.

N. “F.Sh.”ning Armaniston mulkida Farhod qazish ishlarini olib borgan tog‘ tasvirida ham sharq-u g‘arb tarzida bitgan, ammo asarning boshqa bayonlarida esa g‘arbu sharq iborasi o‘rnida, asosan, *marg‘ib-u mashriq* yoki *boxtar* va *boxovar* iboralarini ishlatgan. M-n, dostonning Shopur haqidagi tasvirda *boxtardin to baxovar* tarzida qo‘llagan:

Jahon mulkin kezib kishvar-bakishvar,
*Hududi **boxtardin to baxovar.***
Xito mulkiga ham tushgan guzori,
Kelib olig‘a Moniy dasttori.

Kuzatishlarimizga ko‘ra, N. g‘arb-u sharq iborasining marg‘ib va mashriq, boxtar va baxovar kabi sinonimlarini faqat bosh qahramonlar bilan bog‘liq syujetlardagina qo‘llagan.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

B.R.

G‘ARIB (YOKI JADID) (ar. – g‘arib so‘zi ajoyib, kamyob, jadid esa yangi ma’nosini bildiradi) – foilotun (2-hijo qisqa, qolganlari 2 cho‘ziq – – V – –) aslining 2 marta va mustaf’ilun (3-hijo qisqa, qolganlari cho‘ziq – – – V –) aslining 1 marta takrorlanishidan hosil bo‘ladigan bahr (foilotun foilotun musta’filun – – V – – / – V – – / – – V –). Arab she’riyatiga xos bo‘lib, o‘zbek adabiyotida qo‘llanmagan. N. “M.A.”da bu bahrga misol sifatida:

Ne balolig‘ hajr erurkim, zor o‘lmisham,
Kelki, ul ko‘z hajrida bemor o‘lmisham, –

baytini keltiradi. Bobur esa “Muxtasar” asarida uning yana 10 vaznini ko‘rsatib, ularning barchasiga turkiy baytlar bitgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Бобур. Мухтасар. – Т., 1971; Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т., 1998.*

E.O.

G‘ARIB I (ar.) – bechora, musofir, boshqa joydan kelgan, kimsasiz, umuman olganda, shaxsga nisbatan ishlatiladi. O‘z yurtidan boshqa yurtga safar etgan so‘fiylar G‘. deyilgan. Ammo bu foniy dunyoni g‘urbat hisoblaganlar, asl vatanlari ruhlar olamidan ayrilganliklari u-n o‘zlarini G‘. deb ataydilar, chunki ularning nazdida chin g‘ariblik asl vatan bo‘lgan ruhlar olamidan bu olamga kelishdir. Ruh hamisha o‘sha olamni qo‘msaydi. Zero, inson bu dunyoda har doim o‘zining G‘.ligini yodda tutishi kerak. Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Nabiy sollallohu alayhi vasallam: *“Islom g‘arib holatda boshlandi va qanday boshlangan bo‘lsa, o‘shanday g‘arib holga qaytadi. G‘ariblarga Tubo bo‘lsin!” dedilar”*. Ilm ahliga ko‘ra, holini tushunmagan, tuyg‘u va kechinmalarini anglamagan, johillar orasida qolgan olim, fosid va fosiqlar orasida qolgan taqvo ahli g‘aribdir. Judayam baland ma’naviy va ruhiy holda bo‘lgan so‘fiy-

lar u dunyoda ham, bu dunyoda ham g‘aribdirlar. Chunki ularning holini birov anglamaydi. Najmiddin Kubro hazratlari hol ahli o‘laroq shunday deydi: *“... inson “Makoni av adno”*dan (Najm, 53:9) qaytgach, Haq libosiga burkanadi va bunga jalvat deyiladi. Bu martabadagi so‘fiylarning ikki jihati bor: inson deya tanilib, boshqa insonlar bilan munosabatda bo‘ladilar, malakut olamida yashaydilar. Ikkinchi tomondan esa ko‘rinmaydilar, majhuldirlar, xalqdan uzoq bo‘lib, g‘ayb olamida yashaydilar. Shu bois ular “g‘uraboyi haqiqiyya” (haqiqiy g‘ariblar) deya nom olganlar. Zero, Payg‘ambarimiz: *“...G‘ariblar qanday saodatlidirlar!”* – deya marhamat qilganlar”. G‘. va G‘. lik irfoniy asarlarda bosh mavzulardan bo‘lgan. Shuningdek, G‘.lik aslida Odam atoning yerga inishi – asl vatanidan ayrilishidir. Mana shu haqiqatni anglagan payg‘ambarlar, valiylar – Haq yo‘lchilari bu dunyoda va ahli dunyo orasida o‘zlarini begona va kimsasiz his etgan, natijada irfoniy adabiyotda ularning hollarini ifoda etuvchi G‘. obrazi dunyoga kelgan:

G‘urbatda g‘arib shodmon bo‘lmas emish,
El anga shafiq-u mehribon bo‘lmas emish.
Oltun qafas ichra gar qizil gul butsa,
Bulbulg‘a tikandek oshyon bo‘lmas emish.

“Mir’oti ushshoq” nomli tasavvuf lug‘atida: “g‘urbat – jonon haramidan dil-u jonning yiroqlashuvi; poklik olamidan ajralib nafs-u sharni yaqin bilmoq”, – deb sharhlangan. Sayyid Sajjodiy “g‘urbat”ni quyidagi tarzda tasniflaydi: 1. Vatandan judolik g‘urbati. 2. Johil va fosiq qavm orasida majburan, ya’ni g‘ayriixtiyoriy ravishda o‘tirgan odam g‘urbati. 3. “G‘urbat Haq talabi bo‘lib, bu – orifning g‘urbati, zero, orifning himmati ma’rufdurki, u oxirat ahli orasida ham g‘aribdur”. Chunki, orif “Xalq orasida anissiz bo‘ling! – degan da’vatlarni ham aslo yoddan chiqara olmaydi. N. ruboiysida ilgari surilgan botiniy mazmun orifning g‘urbatidir”. Mazkur ruboiy N.Mallayev, Y.Is’hoqov, A.Hayitmetov, I.Haqqul kabi bir qator adabiyotshunoslar tomonidan o‘rganilgan. Bu mashhur ruboiy mazmun-mohiyatida ham G‘. shaxsiyati, uning ma’naviy dunyosi to‘laqonli ochib berilgan.

Tanimg‘a choklar ochti, ne ayb, agar o‘lsam,
Ki ruh bulbulining loyiqi emas bu qafas.

deyilgan. O‘z vujudini qafas sezgan G‘., gunoh va musibatlarga to‘la olamni “ruh bulbul”ning qafasi deb anglaganligi shubhasizdir. Tasavvuf ta’limotida G‘.ning ilohiy erki – “Anal-Haq”lik. Ana shu hurlikka yetishguncha u g‘urbatda yashaydi, g‘urbatdan tinimsiz azob chekadi. Xaraqoniyning “Nur al-ulum” asaridan o‘qiymiz: “So‘radilarki, g‘arib kimdur. Dedi: Tani bu jahonda g‘arib kishi g‘arib emasdur. Balki dili vujudida, siri ichida bo‘lganlar g‘aribdur. So‘radilarki, uning do‘stlari qanday fazilatli kishilar? Dedi: dunyo do‘stligidan dili forig‘ bo‘lganlar”. N. “N.M.” tazkirasida bu holga e’tibor qaratib, valiylar tilidan g‘ariblarni tavsiflaydi. Ularga xos xususiyatlarga urg‘u beradi: “Abulhasan Subayhiy (q.s.) debdurki, “g‘arib – o‘z vatanida musofir bo‘lgan kishidir”. Va ham ul debdurki, “g‘arib – o‘ziga monandi bo‘lmagan kishi”. Va ham ul debdurki, “g‘arib – o‘zi kabilar bilan suhbat qurgan kishi”.

G‘. so‘zi b-n o‘zakdosh *g‘aribiston, g‘aribxona, g‘aribona, g‘urbat* lafzlari ham G‘. va G‘.lik haqidagi qarashlarga oydinlik kiritadi. N. “M.Q.”da G‘.lik sirrini to‘la ochib beradi. Va undan qutulish yo‘llarini ko‘rsatadi: “Odam bila shayton muxolifatin unutma. Ota dushmanin o‘zungga do‘st tutma. Otangni bihishtdek ma’manidin jalo qildi va yillar xokdon g‘aribistonida zalil va mubtalo qildi. Va otang avlodidin ba’zi anga intiqom tuzdilar va xor-u zabun qilib jafolar ko‘rguzdilar. Nafsni chun taqvo riyozati bila zerdast qildilar – shaytonni zalilliq bila yerga past qildilar”. N.ning mana shu hikmatli so‘zlarini anglagan Odam avlodlari o‘zlarining G‘.ligini va undan omon qaytishni aslo unutmasliklari lozim.

N. asarlarida G‘. lafzi asosidan kelib chiqqan *g‘aribona, g‘aribiston, g‘aribxona* so‘zlari ham keladi. N.ning lirik qahramonida G‘.lik holi ha-

misha ustun bo‘lgan. Hatto soqiyga murojaatida ham shoir shunday deydi:

Soqiyo, jomi g‘aribona ketur,
Men g‘arib ichsam ani, yona ketur.

Musofir G‘. istagan may ham boshqacha. U g‘aribona jom istaydi. Yana bir o‘rinda G‘. un va g‘aribona xulq tilaydi:

Soqiyo, ko‘nglum etar boda havas,
Lutf qilg‘ilki, erurman bekas.

Tut g‘arib un bila paymona manga,
Ko‘rguzub xulqi g‘aribona manga.

Yig‘lamoq holima bir dam fan etay,
Zor-u bekasligima shevan etay.

N. G‘. kalimasini janr talabi b-n turli hislarni ifoda etish uchun qo‘llaydi. Ya’ni G‘. kim degan savolning javobi turli asarlarida turlichadir. Birida boshqa yurtda kezgan sayyoh, ba’zilarida o‘z yurtida abadiy vatanni qo‘msagan sayyor. “N.M.”da o‘qiymiz: “Va Zunnun sayyoh ermish. Debdurki, bir kun borur erdim, bir yigit ko‘rdumki, anda sho‘re bor erdi. Dedim: qaydinsan, ey g‘arib? Dedi: G‘aribmu bo‘lur ulki, Oning bila muvonasati bo‘lg‘ay? Bu so‘zdin qichqirib, behush yiqildim”. Demak, insonning Yaratgan b-n unsiyati bor ekan, u hech bir olamda G‘. emasdur. “M.Q.”ning o‘ttiz uchinchi fasli “G‘arib va benavolar zikrida” deb ataladi. Bunda G‘. salbiy ma’noda qo‘llaniladi: “Jut va lo‘lining ko‘pragi muzhik harakoti va tuz usuli. Muallaq urmoqlarida xoksorlig‘ oshkor, sarnigun turmog‘larida bee’tiborlig‘ padidor. Anoniyatlari yuziga tezak solib chamanvar va insoniyatlig‘lari doirasi maymunlarig‘a chanbar... Tong otqoch er va xotuni kasb uchun tarqashib, o‘g‘ul va qizlari ko‘y va ko‘chada butrashib. Har qaysi har nekim hosil qilib, oqshom barcha bir yerga yig‘ilib, topqonlarin tugatmaguncha uyqu mayli qilmay, tongla ne yegumizdur demak so‘zin bilmay. Tongla ishlari o‘tgan burung‘i kun ishi, bu ham bir ishdur agar qila olsa kishi. Bu razolat kishilik takabburidin xo‘broq va bu zalolat yaxshiliq tasavvuridin marg‘ubroq”.

G‘.ning ko‘pligi “g‘urabo”dir. N. u-n g‘ariblik hissi juda kuchli bo‘lgan. Ham shoir, ham o‘z davrining olim-u orifi o‘laroq bu holdan barchani ogoh etgan. Hatto, o‘z nazmini G‘. ma’nilar b-n yaratilgan g‘aribona, ya’ni insonlar qalbining dor ush-shifosi, deb ataydi:

Nazmim ichra g‘arib ma’nilar
G‘urabo xaylidin nishonadurur.
Anda har bayt necha ma’ni ila
Bayt emaskim, g‘aribxonadurur.

Ilmda N.ning muhrida “Kun fid-dunyo kaanaka g‘aribun av obir-u sabilin” borligi aytilgan. Mazkur hadisi sharifni izohlab, bir qit’asida yozadi:

Dedi hazrati mafxari koinot,
Anga kim edi huznin o‘ksitguchi.
Ki dunyoda bo‘lg‘il nechukkim, g‘arib
Va yoxud aningdekki, yo‘l o‘tkuchi.

N. asarlarida “g‘aribi zor”, “g‘aribi xasta”, “g‘aribi g‘urabo”, “g‘aribi bekas”, “g‘aribi benavo”, “g‘aribi oshiq” kabi birikmalar keladi:

Gar berur husni zakotin, ey Navoiy, yo‘qturur
Xastaye zori g‘aribi benavo andoqki men.

Yoki:

Ilojimdin bo‘lub ojiz dedilar hikmat ahlikim,
G‘arib-u xasta yo‘qkim, oshiq-u devona hamdur bu.

Yoxud:

Ishq dashtin hech g‘urbatkash musofir ko‘rmasun,
Men g‘arib ul dasht aro ko‘rganni kofir ko‘rmasun,

degan.

“L.T.” dostoni G‘aribistonda qolgan G‘. ahlining o‘z vataniga ma’naviy safari sir-sinoatini, usul-arkonini badiiy talqin qiladi. Yo‘lboshchi Hudhud shunday deydi:

“Bu g‘aribiston aro bo‘lg‘on muqim,
Ko‘nglunguzdin ketgan ul noz-u na’im.

Bersa haq tavfiq jiddu jahd etay,
To yana sizni anga hamahd etay.

Bu safarda ranjlardur ta’miya,
Ko‘nglunguzga yetsa ondin tasfiya,

Bu manozil qat’idin yetgach futuh,
Sofiy o‘lsa jismingiz andoqki ruh”.

“M.Q.” asarida “G‘arib va benavolar zikrida” nomli fasl mavjud bo‘lib, bunda jut (hindu qabilasi) va lo‘lilardan bahs yuritiladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

I.H.

G‘ARIB II – ajoyib, qiziq, kamyob ma’nolarida keluvchi arabiy so‘z. N. bu kalimani mazkur ma’nolarida ko‘p bora qo‘llagan:

G‘arib qissa erur ishqkim, tuganmadi hech,
Agarchi bo‘lg‘ali olam binosi aytiladur.

Shoir ba’zi o‘rinlarda bu so‘zning shakldoshlik xususiyatidan foydalanib, go‘zal baytlar yaratadi:

G‘ariblig‘da, demankim, g‘am-u malolati bor,
Ki sendin ayru ko‘ngulning g‘arib holati bor.

Habib ko‘yida ahbobning himoyati bor,
Navoiy asru va lekin g‘aribu bekasdur.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

Z.R.

“G‘ARIB VA BENAZOLAR” – “M.Q.”ning o‘ttiz uchinchi fasl nomi. Unda N. jut va lo‘lilarning kundalik turmushi, yashash tarzi, ularga xos beg‘amlik, takabburlik, o‘yin-kulgiga o‘chlik kabi ayrim illatlar haqida bayon qilgan. N. “M.Q.”ning *“Xaloyiq ahvol va af’ol va aqvolining kayfiyati”*, – deya nomlangan birinchi qism 40 fasldan iborat bo‘lib, unda jamiyatdagi turli toifa va tabaqa vakillari: odil sultonlar-u zolim, johil podshohlar, bek-u noiblar, vazir-u navkarlar, shayxulislom, mufti, mudarris, imomlar-u nujum ahli, tujjorlar, dehqonlarning turmush tarzi, yaxshi xulq-atvori b-n birga ayrim ayb va nuqsonlari haqida ham bahs qilgan. Xususan, “G‘.B.”lar zikrida masxarabozlik, kuldiruvchi harakatlar jut va lo‘lilarning kundalik odati ekanini ta’kidlaydi. *“Bukun topqonni yeb, tongla g‘amin yemay, tilab nima bermagandin shikoyat so‘zin demay. Vatan va maskanlari xorlig‘ vayronasi, manzil va ma’manlari xoksorlig‘ koshonasi. Tong otqoch er va xotuni kasb uchun tarqashib, o‘g‘ul va qizlari ko‘y va ko‘chada butrashib. Har qaysi har nekim hosil qilib, oqshom barcha bir yerga yig‘ilib, topqonlarin tugatmaguncha uyqu mayli qilmay..,”* deya mazkur qavmni ta’riflarkan, bu kabi razolat, past tabiatlilik, adashish va zalolat ayrim odamlardagi takabburlikdan, ularning yaxshilik deb o‘ylagan tasavvuridan ma’qulroqdir, deya fikrini quyidagicha xulosalaydi:

Kishi agar kishi o‘lsa, o‘zin kishi demagay,
Qilurda hech ishin ham kishi ishi demagay.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

E.Q.

G‘ARIBIY (taxallusi; ismi Muhammad Ali (t.y. noma’lum, Hirot – v. Samarqand, 1469) – sipohiy, shoir, musiqachi. N.ning kichik tog‘asi. “M.N.”da ma’lumot berishicha, u xushsuhbat, xushxulq, xushtab’ va dardmand (ya’ni yuragida dardi bor) yigit edi. Musiqa ilmidan ham yaxshigina xabardor bo‘lib, ovozi yoqimli, usuli go‘zal edi. Ma’lumki, N. ham musiqa bilimdoni edi. U yetti-sakkiz yoshlaridan musiqa b-n shug‘ullanib, bu borada ilk saboqni iste’dodli sozanda bo‘lgan tog‘asi G‘.dan olgan. U mohir xattot ham bo‘lgan. Ana shu alohida fazilatlari tufayli Husayn Boyqaro ham unga boshqalardan ko‘proq inoyat ko‘rsatgan. Sultonning toj-u taxt u-n olib borgan kurashlarida ham akasi Said Kobuliy b-n birga bo‘lgan. Shuning u-n ham N.: “Agarchi bu faqirlarning qavm va xayli Sulton sohibqironning boyri qullari va mavrusiy bandalaridurlar, ammo bu mazkur bo‘lg‘on salohiyatlar jihatidin ul hazratning iltifoti inoyati aning bila o‘zgalardin ko‘proq edi”, – deb yozadi.

Zullisonayn shoir bo‘lgan: ham forsiy, ham turkiyda qalam tebratgan. N. o‘z tazkirasida uning har ikki tildagi ijodidan namuna keltiradi. Turkiy bayti:

Dardi holimdin agar g‘ofil, agar ogoh esang,
Hech g‘amim yo‘q sen manga gar dilbar-u
dilxoh esang.

Forsiy matla’:

Chashmi bemori tu hardam notavonam mekunad,
La’li jonbaxshi tu, jono, qasdi jonim mekunad.

Tarj.: Sening bemor (ya’ni xumor) ko‘zing meni har lahza zaif-u beqaror qiladi, jon baxsh etuvchi labing esa jonimga qasd qiladi.

Husayn Boyqaroning xizmatini tark etib, Samarqandga borganida akasining qotili tomonidan o‘ldiriladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Асадов М. Соқийнома: тарих ва поэтика. – Т., 2020; Абдуқодиров А. Амир Алишер Навоий. – Хўжанд, 2023; Sirojiddinov Sh. Amir Alisher. – T., 2023.*

M.A.

G‘AROYIB US-SIG‘AR (Yoshlik g‘aroyibotlari)

To‘rt devonni jamlagan “X.M.” lirik kulliyotining birinchi devoni. Ilk devon bo‘lganligi bois salmoqli debocha yozilgan. Debocha an’anaga ko‘ra, hamd b-n boshlanadi: “Shukr-u sipos ul Qodirg‘akim, chun adam osoyishgohidin vujud oroyishgohlarig‘a jilva berdi, insonni soyir maxluqotdin nutq sharafi bila mumtoz qildi”. Shoir debochada nasr va nazmdan birday foydalanib, shoirlik salohiyati, she’rda mazmun va shakl uyg‘unligi, “X.M.” devonlar to‘plami kabi qator masalalar xususida bahs yuritadi. Bu hol na’tda ham yaqqol ko‘rinadi: “Va durudi noma’dud ul anbiyo halqasining xotimig‘akim, “innash-she’ra lahikmatun va innal-bayona lasihrun” nuktasi bila shuaro poyasin hukamo martabasig‘a chekti-yu bayon rutbasin sehr manzilasig‘a tortti.

Ruboiy:

Ulkim chu balog‘at etti da’vo a’rob
Ko‘rguzdilar ul da’vo aro ko‘p itnob.

Chun nuktasida qildi ayon gavhari nob,
Da’vogari gavharlari bo‘ldi siymob”.

N.ning tarjimayi holi va ijodiy evolyutsiyasi o‘z asarlarida aks etgan. Shulardan biri shoirning debochalaridir. “G‘.S.” debochasida ham “al faqir-ul-haqir Alisher al-mutaxallis bin-Navoiy” kichik yoshdan o‘zini she’rning parishon savdosiga topshirgani, “B.B.” va “N.N.” nomli devonlar tuzgani, nihoyat, Husayn Boyqaro amri b-n barcha she’rlarini 4 devonga jamlagani, aslida avvalgi devonlar ham sulton hukmi va madadi ila bo‘lgani haqida ma’lumot beradi. Aytish mumkinki, N.ning nafaqat nasriy, balki lirik merosida ham H.Boyqaroga bag‘ishlovlar talaygina. Debochada ham do‘sti shoh Husayn Boyqaroga

alohida e’tibor qaratiladi: “Umid ulkim, bu to‘rt devonkim, Sultoni sohibqiron oti bila muzayyaldurur-u alqobi bila mutarraz, ham aning otidek rub’i maskunda to‘lg‘a-yu ham aning alqobidek to‘rtunchi ko‘kka degincha muntashir bo‘lg‘ay. Shukrkim, bu banda nazm vasilasi-yu she’r vositasi bila tamom umrumni ul hazratning madhi bila kechurdum va barcha hayotimni aning duosi bila o‘tkardim”.

N.ning debochada kulliyotning “X.M.” deya nomlanishidan tortib, har bir devonning tartib ila kelishi va nomlanishi to‘g‘risida ham ma’lumot berishi tabiiy bir holdir. Zero, N.da shoirlik bir maslak o‘laroq o‘zining ma’lum vazifalariga ega edi. Devonlarining nomlanishi haqida esa shunday deydi: “To‘rt faslining muqobalasidakim, to‘rt devon voqi’ bo‘luptur, har qaysig‘a bir munosib ot darboyist edi, ul sababdin avvalg‘i devonnikim, tufuliyyat bahori g‘unchasining ajib gullari va sig‘ar gulzorining bog‘chasining g‘arib chechaklari bila orosta bo‘lub erdi, “G‘aroyib us-sig‘ar” deyildi. Va ikkinchi devonnikim, yigitlik-u oshuftalig‘ va shabobu oluftalig‘ yoziyu dashtida yuzlangan nodir vaqoyi’ bila pirosta bo‘lub erdi, “Navodir ush-shabob.” ataldi. Va uchunchi devonnikim, vasat-ul – hayot mayxonasida ishq bila shavq paymonasidin yuzlangan badi’ nishotlar kayfiyatin yozilib erdi “Badoye’ ul-vasat” ot qo‘yuldi. Va to‘rtunchi devonnikim, umrning oxirlarida yuzlangan ishq dardu ranji foyidalarikim, jonso‘z oh urmoq-u jon topshurmoqdurkim, anda sabt bo‘lubtur, “Favoyid ul-kibar” laqab berildi. Jumladan, yoshlik bahorining ajib gullari va o‘spirinlik gulzorining g‘arib chechaklari b-n orasta bo‘lganligi u-n nomi ham “G‘.S.” bo‘lganligini ta’kidlaydi.

Shoir “G‘.S.” devoniga umr fasllarining navbahori-yu hayot gulllarining yashnagan gulzori bo‘lgan 7-8 yoshdan – 20 yoshgacha bo‘lgan davrda yozgan she’rlari kirganligini ta’kidlaydi. Lekin “X.M.”ga muharrirlik qilgan Husayn Boyqaroga bu tadrijiy tartib ma’qul bo‘lmagan bo‘lsa kerakki, mazkur devonlardan N.ning boshqa davrlarda yozgan she’rlari ham o‘rin olgan. “G‘.S.” ham bundan mustasno emas. M-n, “G‘.S.”dagi bir qator she’rlarda Husayn Boyqaro shoh sifatida zikr etiladi, holbuki, u taxtga chiqqanda N. 28 yoshda edi. Binobarin, devonlar nomining mazmunini shartli ma’noda tushunish kerak. Bu haqda shoirning o‘zi ham “Munsh.”-dagi maktublaridan birida “burung‘i ikki devon ash’ori bila so‘ngra aytilg‘anlarim bila qo‘shub, tartib bila to‘rt ayrildi” deb izoh beradi. Taniqli manbashunos H.Sulaymonning nisbiy tasnifiga ko‘ra, “G‘.S.”dan jami 840 ta she’r o‘rin olgan bo‘lib, ularning 156 tasi yoshlik, 499 tasi yigitlik, 27 tasi o‘rta yoshlik, 158 tasi qarilik davriga mansub. Umuman, “G‘.S.” 650 g‘azal, 3 muxammas, 1 mustazod, 1 tarje’band, 1 masnaviy (“Sayyid Hasan Ardasherga she’riy maktub”), 50 qit’a va 133 ruboiydan tashkil topgan.

Devonning kattagina qismini g‘azallar tashkil qiladi. Debochadan so‘ng hamd va na’t g‘azallar keltiriladi. G‘azallar arab alifbosi tartibida beriladi. Devon:

Ashraqat min aksi shamsil-ka’si anvorul-hudo,
“Yor aksin mayda ko‘r” deb, jomdin chiqti sado,

matla’li hamd g‘azal b-n boshlanadi. Hamd va na’t g‘azallar devonning har o‘rnida kelganligiga guvoh bo‘linadi. M-n, “Dol harfining diloromlarining davroni “G‘aroyib”din” sarlavhasi ostida kelgan ilk g‘azal na’tdir:

Odamki, bashar nasli silkiga erur payvand,
Suvratda sanga volid, ma’noda sanga farzand.

Devonda janrlar quyidagicha tartiblangan: debocha, g‘azal, mustahzod, muxammas, musaddas, tarji’band, masnaviy, qit’a, ruboiy.

Devonda qit’alarning sarlavhalanishi va ichki bir mazmuniy tartibga egaligi e’tiborga molik. “Tengri zoti haqiqati...” nomli hamd va “Rasuli a’zam sha’nida...” na’t qit’adan so‘ng fano haqidagi qit’alar boshlanadi:

Foniyi mutlaq o‘lmayin solik,
Anga yo‘qtur umidi maqsadi kull.

Qaro tufroqqa sing‘mayin qatra,
Andin imkoni yo‘q ochilmoq gul.

“G‘.S.” devonining bosh qahramoni, shubhasiz, shoirning o‘zidir. Devon N.ning hol va maqomlaridan tashqari ijtimoiy-siyosiy qarashlarini ham namoyon qiladi. Turkiy tilda ham go‘zal bir devon yarata olish imkonini asoslashi esa adabiyotshunosligimizda alohida hodisa.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т., 1976.*

Ab.H., E.O.

G‘AFUR G‘ULOM (taxallusi; asl nomi G‘ulomov G‘afur (1903–1966, Toshkent) shoir, tarjimon, adabiyotshunos. Toshkent shahrida Qo‘rg‘ontegi mahallasidagi eski maktab va madrasada, rus-tuzem (1916) va “Hayot” maktablarida (1918) o‘qigan. Tirikchilik u-n kosiblik, tunukasozlik, harf teruvchilik qilgan. Muallimlar tayyorlash kurslarini tugatib, “Cho‘lpon” (1919), “Hayot” maktablarida o‘qituvchi, bolalar uyi (1926), “Urfon” maktabida mudir (1928) bo‘lib ishlagan. “Kambag‘al dehqon” (1928), va “Sharq haqiqati” (1929) gazetalarida mas’ul kotib, “Mushtum”, “Yer yuzi” jurnallari gazetasida adabiy xodim (1930–1942), O‘zR FA Til va adabiyot institutida katta ilmiy xodim (1943–1966) lavozimlarida faoliyat ko‘rsatgan. O‘tgan asrning 30-yy.dan shoir, hikoyanavis, dramaturg, tarjimon sifatida ijod qilib, “Dinamo”, “Yigit”, “Egalari egallaganda”, “Xitoydan lavhalar” (1931), “Tirik qo‘shiqlar” (1932), “Ko‘kan” (1934), “Sizga” (1935), “Chashma” (1939) she’riy to‘lam va dostonlari, “Jo‘raboy” hikoyalar to‘plami, “Netay” (1932), “Tirilgan murda” (1935), “Yodgor”, “Shum bola” (1932) qissalari va “Muxbir sudi” (1929) pyesasini nashr etgan. V.Mayakovskiyning “Hayqiriq”, (1929), Hodi Toqtoshning “Muhabbat tavbasi” (1931) dostonlari, V.Shekspirning “Otello”, “Qirol Lir”, O‘rdubodiyning “Besh so‘mlik kelin”, N.Hikmatning “Bir sevgi afsonasi” pyesalarini, M.Kozimiyning “Qo‘rqinchli Tehron” romani, A.S.Pushkin, M.Y. Lermontov, T.Shevchenko, N.Nekrasov, M.Tursunzoda asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan.

G‘.G‘.ning ijodiy takomili va adabiy-ilmiy faoliyatida N. muhim o‘rin tutadi. U o‘zining buyuk salafi asarlarini muttasil mutolaa qilgan, ulardan ta’sirlangan, unga ergashgan. 30-yy. oxirida N. tavalludining 500 yilligini keng tantana qilish maqsadida tuzilgan Navoiy komiteti a’zosi sifatida ayni tadbirlarda faol ishtirok etgan va o‘zi ham “F.Sh.” dostonini bir necha qo‘lyozmalar asosida nashrga tayyorlagan. “U dostonning o‘smir va yosh kitobxonlarga mo‘ljallangan variantini ham nasrda yozib, 1939-y.da “Bolalar va yoshlar” nashriyotiga topshirgan edi”. Turli yillarda buyuk so‘z san’atkorining hayoti va ijodi haqida “Navoiy va zamonamiz”, “Sharq nazmi osmonining ikki porloq quyoshi” (Jomiy va N.), “Buyuk ustoz” maqolalarini yozgan. Shoir hayoti b-n bog‘liq “Ma’no va mazmuni o‘g‘irlangan she’r” va “Yuz bayti bir pullik she’r” nomli ikki latifa bitgan. Buyuk salafiga bag‘ishlab “Alisher” nomli badiiy barkamol va umrboqiy she’r yaratgan. Hirot safari va N. qabri ziyorati taassurotlari asosida “Xoki musallo”, “Taxti safar” xotiralarini, “Alisher Navoiy qabri ustida” nomli muxammas yozgan, “Tun bila tong” radifli mashhur g‘azaliga go‘zal taxmis bog‘lagan. Yana ko‘plab she’rlarida turli munosabat b-n uni tilga olgan, u haqda fikr yuritgan. Forsiy merosidan 2 g‘azalni tarjima qilgan.

G‘.G‘.ning “Kechmish va kechirmishlarimdan” deb atalgan tarjimayi holidan ma’lum bo‘lishicha, uning otasi ham, onasi ham adabiyot muhibi bo‘lishgan. Bu haqda shoirning o‘zi shunday eslaydi: “Hali beshikda yotar ekanman, onam Hofiz, Jomiy, Navoiy va Fuzuliy g‘azallaridan xonish qilib, meni allalardi. Tabiiyki, ularning asarlari ona suti bilan qonimga singib, jism-u ruhimga sayqal berardi”. Ko‘rinadiki, Sharq

mumtoz so‘z san’atiga, jumladan, N. ijodiga muhabbat G‘.G‘.da hali yoshligidan boshlangan. O‘zi 9 yoshidayoq savodi chiqib, Sa’diy, Hofiz, N. asarlarini bemalol o‘qiganligi haqida ma’lumot beradi. Keyinchalik shoir barcha Sharq so‘z san’ati buyuk namoyandalarini o‘zining xesh-aqrabolari deb atagan edi: “Men – Sharq shoiriman. Shuning uchun Sharq klassiklarining hammasi mening xesh-aqrabolarim, desam, ajablanarli bo‘lmas. Mening bu xesh-aqrabolarim − fors she’riyatining otasi Abu Abdullo Ja’far ibn Muhammad binni Abdurahmon binni Odam Ro‘dakiy, Hakim Abulqosim Firdavsiy, Hakim Umar Xayyom, Shayx Muslihiddin Sa’diy Sheroziy, Shamsiddin Muhammad Hofiz, Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon ibn Ahmad Jomiy, Alisher Navoiy, Muhammad Fuzuliy va boshqalar.

Meni shularning merosi va an’analari tarbiyalagan”.

“Alisher” nomli baquvvat va salmoqli she’ri garchi hukmron mafkura ta’sirida yozilgan bo‘lsa-da, unda ulug‘ shoirning so‘z saltanatidagi mavqeyi va u yashab ijod qilgan davrga munosib baho bera olgan. Jumladan, ilk banddayoq Vatanni tog‘-u Alisherni unda o‘kirgan sherga nisbat beradi:

Yuksak tog‘ oralab o‘kirgan sherning
Na’rasiga tengdir aksi sadosi.
Besh yuz yil yangradi tog‘day Vatanda
Buyuk Alisherning asriy nidosi.

G‘.G‘. “o‘zbek adabiyotining otalari qatoriga ko‘tarila olgan o‘zbekning ulug‘ shoiri Alisher Navoiy” va uning durdona asarlari bobida mana bunday tashbehli misralar bitadi:

O‘zbek deb atalgan ozod ulusning
Otaxon shoiri, qadrli ustod.

Oshiqlar g‘azaling kuyga solganda,
Ma’shuqlar dilining xonasi obod.

Biror shohbaytingni yoddosh tutmagan
Kattadir, kichikdir, bizda kishi yo‘q.

Oltin baldoqdagi nifrit ko‘zi kabi
Asaring biz uchun bo‘ldi qorachiq.

She’rning ko‘lami keng va teran bo‘lib, u faqat N. ta’rifi b-n chegaralanmaydi: muallif shoir yashagan davrga ham, temuriylar saltanatining inqiroziga ham, o‘zbek xalqi tarixining ko‘hna va shonli ekanligiga ham, uni qabila sifatida kamsitayotgan G‘arb olimlarining qarashlariga va mamlakatning taraqqiyot yo‘lidagi zalvorli odimlarga ham o‘z munosabatini bildirib o‘tadi.

1964-y.da Hirotga borib, buyuk salafi mozorini ziyorat qilganida “Alisher Navoiy qabri ustida” nomli muxammas yozadi. Albatta, muxammas sho‘ro mafkurasi qolipida yozilgan va shoir buyuk salafining orzulari ro‘yobga chiqqan yurtdan kelganini ta’kidlab charchamaydi. Muxammasni N.ning mashhur misrasidan tazmin o‘laroq foydalanish b-n tugatadi:

Vatan osmonida nurga to‘la oftobni, yulduzni,
Buyuk iqbolni ijod aylagan minglarcha gul yuzni,
Qorong‘i shomi yo‘q doim
munavvar baxtli kunduzni,
Jamolini ko‘rishga bir umrlar yummayin ko‘zni,
“Navoiy ham yotar to ro‘zi
mahshar tarki xob aylab”.

G‘.G‘. shu safar jarayonida va uning ilhomi bilan N.ning tazodga asoslangan mashhur “Tun bila tong” radifli g‘azaliga go‘zal taxmis bog‘laydi:

Mening qarog‘imu oning jamoli tun bila tong,
Mening zavolimu oning kamoli tun bila tong,
Mening kuyuk mahim, oning hiloli tun bila tong,
Mening firoqimu oning visoli tun bila tong,
Bu nav’ dahrda yo‘q ehtimoli tun bila tong.

Aslida radifning o‘zi o‘zaro zid ma’noli so‘zlar asosiga qurilgan: “tun bila tong”. G‘azalning

ilk misrasida muallif yorning firog‘i va visolini tun b-n tongga nisbat beradi. Chindan ham, firoq zulmat tunga-yu, visol yorug‘ tongga o‘xshaydi-da. G‘.G‘. esa o‘zi qo‘shgan uch misraning har birini tazod asosiga qurib, muxammasni yanada kuchaytiradi: oshiq ko‘zining qorachig‘i-yu ma’shuqning jamoli, oshiqning zavoli-yu ma’shuqning kamoli, oshiqning so‘ngan oyi b-n ma’shuqning yangi chiqqan oy – hilolday barra qoshlari – barcha-barchasi nisbatda tun b-n tongga, ya’ni zulmat va yorug‘likka qiyos qilinadi.

G‘.G‘. boshqa qator she’rlarida ham o‘zining turli fikrlarini kuchaytirish va tasdiqlash maqsadida N.ni, uning mashhur asarlari va qahramonlarini tilga oladi.

“Bosmaga tayyorlovchidan” degan muqaddimada G‘.G‘. “F.Sh.” dostonini nashrga tayyorlashda yigirmatalab qo‘lyozma asosida Shohmurod kotib tomonidan ko‘chirilib, 1901-y.da Toshkentda Porsev matbaasida bosilgan nusxadan, shuningdek, o‘zining qo‘lidagi Xiva, Buxoro, Qo‘qon va Toshkentda ko‘chirilgan ishonchli qo‘lyozmalardan foydalangani haqida xabar beradi va uni tabdil qilgani to‘g‘risida shunday deydi: “Dostonning tili keng o‘quvchilar ommasiga yaxshi anglashilarli bo‘lsin uchun uni bugungi adabiy tilda nasr b-n ham yozib chiqdik. Har bir baytning to‘g‘risida uning hozirgi adabiy tildagi ifodasi ham berildi”.

G‘.G‘. amalga oshirgan “F.Sh.”ning nasriy bayoni N. ijodini xalqqa yaqinlashtirish yo‘lida muhim qadam bo‘libgina qolmay, ulug‘ shoir asarlari tabdilining n.shunoslikda alohida yo‘nalishga aylanishiga yo‘l ochib berdi. U buyuk so‘z san’atkorining til jihatidan og‘ir, usluban murakkab, timsol-u tashbehlarga boy dostonini mazmun-mohiyatini o‘quvchiga tushunarli bir usulda bayon qiladi. M-n, Farhodning harb san’atini qisqa bir fursatda egallab, bemisl qudrati va mahorati b-n hammani hayratga solgani haqidagi quyidagi baytlarni o‘zbekchaga mana bunday tabdil qiladi:

Qilichi zarbasi olinda har mard
Shigof andoqki suvdin yer aro darz.

Ne yer, tog‘ini kisvat qildi xoro,
Bu kisvatdin qilib darz oshkoro.

Qilib gar hamla Alburz uzra bir gurz,
Bo‘lub gard-u chiqib gardung‘a Alburz.

Evurgach nayzasin davri falakvor,
Bo‘lub qalqon o‘ziga charxi davvor.

Nasriy bayoni: “Qilichining zarbasi oldida har bir zamin suvda yer ustida darz ketganday yorilar edi. Qaysi bir tog‘ o‘ziga qanday toshlarni kiyim qilib olgan bo‘lsa, Farhod o‘sha kiyim-boshdan yorug‘ ochar edi. Agar Alburz tog‘iga bir turli ursa, u gard-gard bo‘lib, osmonga chiqib ketar edi. U falakday nayzasini boshidan aylantirganda o‘ziga aylantiruvi ko‘kni qalqon qilib olar edi”.

1939-y.da yozgan “Folklordan o‘rganaylik” nomli salmoqli maqolasidayoq bir necha o‘rinda N.ni tilga oladi. Jumladan, tasavvufiy mazmundagi “F.Sh.” dostonining xalq variantida hayotiylik birinchi o‘ringa chiqqani xususida shunday yozgandi: “Hatto yozma adabiyotdan folklorga ko‘chgan ba’zi syujetlarda ham, aslda pessimistik unsurlar bo‘lishiga qaramay, xalq qo‘liga o‘tgach, o‘sha unsurlar yo‘qolib, ularning o‘rnini optimistlik egallaydi. Bu so‘zga xarakterli misol N.ning “F.Sh.”ni b-n shu poemaning xalq o‘rtasidagi variantidir”. Dostondagi shoirga tushkunlik ruhi bo‘lib ko‘ringan narsa aslida undagi tasavvufiy mazmun edi.

G‘.G‘.ning “X.” dostonlari misolida N.ning o‘z asarlarida xalq og‘zaki ijodidan samarali foydalanish barobarida o‘zi ham xalq og‘zaki ijodiga kuchli ta’sir o‘tkazgani b-n bog‘liq mana bu mulohazalari ham teran ilmiy asosga ega: “Ma’lumdirki, Alisher Navoiy “Farhod va Shirin”ni yozishda xalq adabiyotidan keng foydalanishi bilan birga, ikkinchi navbatda N.ning “F.Sh.”i ham folklorga ta’sirsiz qolmagan. Xalq og‘zida aytilib kelayotgan bir necha variantdagi bu dostonlarda asosiy syujet bo‘lib Navoiy matni yotadi”.

Yoki: “Ulug‘ adib, shoir va olim N.ning shoh asarlari bo‘lgan “F.Sh.”, “L.M.” “S.S.”dagi yetti

musofir hikoyalari xalq ijodidagi kuchli fantaziyaning, aqllarni shoshirar darajadagi uydirmachilik san'atining, kam-ko'stsiz so'z boyligining jamuljamida adabiyot san'atining tojidagi gavhari serobiday porloq namunasidirki, N. bu asarlari b-n xalqning ulug' ijodkori bo'lib qoladi. U o'z syujetlarini xalqdan olgani kabi, ikkinchi navbatda xalq uchun syujet beradi. Uning "Farhod va Shirin"i xalq o'rtasiga singib ketgan va haligacha ertak va doston shakllarida bir necha turli qilib aytilib keladi. "Layli va Majnun" ham shunday".

N.ning 500 yillik yubileyi munosabati b-n yozgan "Navoiy va zamonamiz" nomli maqolasida (1948) ulug' shoir asarlarida haddi a'losida kuylangan insonparvarlik, vatanparvarlik, xalqlar do'stligi, ilm-u ma'rifat kabi g'oyalarning barcha zamonlarda ham dolzarb ahamiyat kasb etib, hech qachon o'z qimmatini yo'qotmasligi va barcha davrlar u-n birday xizmat qilaverishi haqida to'lqinlanib yozadi. "Alisher Navoiyning birorta asari yo'qkim, yo muqaddima qismida, yo bo'lmasa oxirida biror bahona vositasi b-n ilm-u ma'rifatga, birlikka targ'ib va tashviq qilmagan bo'lsin. Jahonda baxtiyor bo'lmoq, saodatmand bo'lmoq, "har ikki dunyoda" aziz va mukarram bo'lmoq ilm va ma'rifat bilangina muyassar bo'ladi, deydi Navoiy", – degan fikrlarni bildiradi, jumladan, maqolada. Jomiy va N. haqidagi "Sharq nazmi osmonining ikki porloq quyoshi" maqolasida (1964) esa ikki buyuk so'z san'atkori o'rtasidagi o'zaro do'stlik va hamkorlik qirralari yoritiladi. Unda, jumladan, shunday qimmatli fikrlarni o'qiymiz: "Jomiy va Navoiy o'rtasidagi ijodiy hamkorlik shu qadar mustahkam va shu qadar yaqin ediki, ularning ijodxonasi bir-biridan nur olardi. Ular bir xil manfaat bilan yashar, bir havodan nafas olar, bir-birini nazm maydonida yangidan-yangi qahramonliklar ko'rsatishga ruhlantirar edi". Ayni maqolada taniqli sharqshunos Y.E.Bertelsning fikr-u mulohazalarini qo'llab-quvvatlab, Abdurahmon Jomiy o'zbek tilini bilgan, agar "X."ni o'qib tushunmaganida unga bu qadar yuksak baho berishdan andisha qilar edi deb yozadi: "O'zbek adabiyotiga katta hurmat bilan qaragan Jomiy o'zbek tilini bilgan, Navoiy va boshqa o'zbek mualliflarining asarlari bilan originalda tanishgan va o'zining do'stona va qimmatli fikrlarini bayon etib turgan".

N. tavalludining 525 yilligi munosabati b-n yozgan "Buyuk ustoz" maqolasida (1966) shoir ijodining qimmati va n.shunoslik taraqqiyoti xususidagi kuzatishlarini bayon etadi. Unda, jumladan, o'zining bir umrlik kuzatish va mulohazalarining qaymog'ini bayon etadi: "Navoiy asarlarini o'z davri eng ilg'or axloq nomalarining badiiy kodeksi deb atash mumkin".

"Ko'p yillik ijodiy mehnatning samarasi va shoir falsafiy va ham badiiy tafakkurining poetik sintezi bo'lgan bu asar ("Xamsa" – E.O.)ga g'oyaviy teran yangi, original, dostonlardan o'lmas abadiy tiplarning badiiy galeriyasi gavdalanadi".

G'.G'.ing nafaqat she'riyati, balki nasriy asarlarida ham N. ta'sirini ko'ramiz. Jumladan, mashhur "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasi "H.A."-dagi Ayyub va o'g'ri hikoyatini esga soladi. Hikoyada kampir, hikoyatda Ayyub muruvvat ko'rsatib, yordam berish b-n o'g'rini tarbiyalab, to'g'ri yo'lga soladilar.

"D.F."ning she'riy tarjimasiga birinchi bo'lib G'.G' qo'l uradi. Shoir tavalludining 525 yilligi oldidan u "Bir qadah may izlabon ketdim bugun mayxonaga" va "Yaxshi bo'lg'ay olam ahlin qilmasang hech yodlarin" misralari boshlanadigan 2 g'azalini o'zbekchalashtirib, 1966-y.da e'lon qiladi. Chunonchi, 2-g'azal ramali musammani maqsur (foilotun foilotun foilotun foilun – – V – – \ – V – – \ – V – – \ – V –) da yozilgan bo'lib, tarjimon uni ayni vaznning o'zi b-n tarjima qilish orqali asliyatga ham shaklan, ham mazmunan muvofiq tarjima yaratgan:

Harchi hastand ahli olam beh, ki n-ori yodashon,
To ba xotir n-oyadat az yodashon bedodashon.
Yaxshi bo'lg'ay olam ahlin
qilmasang hech yodlarin,
Olmasang hech xotiringga
yodlarin – bedodlarin.

Lekin 1-g‘azal hazaji musammani axrabi solim vaznida bo‘lib, mutarjim uni ham ramali musammani maqsurda tarjima qilgan.

Ad.: *Ғафур Ғулом. Асарлар. 10 жилдлик. – Т., 1972–1976; Ғафур Ғулом. Мукаммал асарлар тўплами. 12 жилдлик. – Т., 1983–1988; Ғафур Ғулом. Виқор (Лирика). – Т., 1980; Ғафур Ғулом. Танланган асарлар (Назм ва наср). – Т., 2003; Каримов Н. Ғафур Ғулом // ЎзМЭ. 11-жилд. – Т., 2005; Оташнафас шоир (Тўплам). – Т., 1994; Жўраев О. Алишер Навоий асарларининг Ғафур Ғулом ижодига таъсири // Адабиёт кўзгуси (Илмий тўплам). № 6. – Т., 2000; Очилов Э. Алишер Навоий ва Ғафур Ғулом // “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2023, № 3; Ражабова Б. “Навоий деб мусаллога келибмен...”. Маърифат // 2023, 26 июль.*

E.O., M.A., B.R.

G‘IYOSIDDIN – N. davri Hirot shoirlaridan. “M.N.”da keltirilishicha, tolibi ilm va xushta’b yigit bo‘lgan. Tabobatga mashg‘ul bo‘lib, bu sohadagi shuhrati boshqa ishlaridan ko‘proq edi. Tabobatga oid risola ham yozgan. Shoirlik iste’dodi ham baland bo‘lib, Nizomiyning “Maxzan ul-asror” dostoniga javob aytgan. N. bu tatabbu’ning go‘zal va ma’noli chiqqanini ta’kidlaydi. Ijodidan namuna sifatida bir matla’sini keltirib o‘tadi:

Ey sabo, k-on bog‘i orazro tamosho kardayi,
Muztarib mebinamat go‘yo gule vo kardayi.

Tarj.: Ey sabo, ul husn bog‘ini tomosha qildingmi? Seni iztirobda ko‘rayapman – go‘yo bir gulning pardasini ochgandaysan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

E.O.

G‘IYOSIDDIN KICHKINA (G‘iyosiddin Bahodir, Kichkina Bahodir, G‘iyosiddin Muhammad, t.y. va v.y. noma’lum, Hirot) – N.ning otasi. Chunonchi, G‘.K. haqidagi dastlabki va eng ishonchli xabarlar N.ning o‘z asarlaridan ayon bo‘ladi. Jumladan, “B.B.”ning debochasida “otam bu oston xokbezi, onam ham bu saroy bo‘stoni kanizi”, – deb ularning temuriylar xonadoni xizmatida bo‘lganliklarini kamtarona ta’kidlab o‘tgan. Shuningdek, muallifning “V.”sidagi “bu xoksorning ota va abukim, ul hazratning (Husayn Boyqaroning) obo va ajdodi xizmatlaridakim, har biri saltanat konining gavhari va shujoat beshasining g‘azanfari erdilar − ulug‘ marotibqa sazovor va biyik manosibqa komgor bo‘lg‘on erdilar”, degan ma’lumotlari ularning saltanatda nufuzli kishilar bo‘lganligi va urush-yurishlarda qahramonlik namunalarini ko‘rsatganliklaridan dalolat beradi.

Tarixchi Mirxondning “Ravzat-us-safo” (“Soflik bog‘i”) asarida qayd etilishicha, N.ning ota tomonidan bobosi Amir Temurning ikkinchi o‘g‘li Umarshayx Mirzo (1394) b-n emikdosh bo‘lgan. Agar ikki bir-biriga begona bolani go‘dakligida bir ona emizdirsa, ular emikdosh deyiladi. Bu emikdoshlikdan uch xulosaga kelish mumkin. Birinchidan, N.ning ajdodlari o‘z davrining mansabdor, badavlat va e’tiborli kishilari bo‘lgan. Ikkinchidan, ular Temuriylar xonadoniga yaqin bo‘lganlar. Uchinchidan, ular ham turkiy xalqlarning Temuriylar mansub bo‘lgan urug‘idan bo‘lishgan. Temuriylar xonadoniga yaqinlik N. ajdodlaridan boshlangan va davom etgan. N.ning otasi G‘iyosiddin Muhammad ham Temuriylardan Boyqaro Mirzoning o‘g‘li G‘iyosiddin Mansur b-n emikdosh edi. Boyqaro Mirzo Umarshayxning Pirmuhammad, Rustam, Iskandar va Ahmaddan kichik, beshinchi o‘g‘li edi. U 1415–1416-yy.da Hamadon (Eron) hukmroni bo‘lgan. Uning yagona o‘g‘li bo‘lmish G‘iyosiddin Mansur esa hokimiyat egasi bo‘lmagan va 1445-y.da vafot etgan. N.ning do‘sti, 1469–1506-yy.da Xuroson mamlakatida podshohlik qilgan Sulton Husayn Boyqaro G‘iyosiddin Mansurning o‘g‘li bo‘lib, otasi vafot etganda 7 yoshda edi. U N. b-n yoshligidan do‘st bo‘lib, boshlang‘ich maktabda ham birga o‘qish-

gan. N.ning otasi xuddi shu Husayn Boyqaroning otasi b-n emikdosh edi. Bu voqelik haqida tarixchi Abdurazzoq Samarqandiy ham “Matla’yi sa’dayn va majmayi bahrayn” asarida shunday yozadi: *“... Amir Alisherdirkim, qadim zamonlardan uning mukarram bobolari va ajdodi oliy amirlar qatoridan joy olgan edilar. Umarshayx Mirzo ibn Amir Temur davrida ularning hayoti lavhiga ko‘kaldoshlik baxti e’tibor qalami b-n yozib qo‘yilgan edi*”. N. nomini tarixda birinchi bor yozma qayd etgan ushbu manba N.ning shaxsan nazorati ostida yakunlangani b-n ham qiymatlidir.

N.ning otasi jasoratli kishi bo‘lganligi sababli G‘iyosiddin Bahodir, G‘.K., Kichkina Bahodir laqablari b-n mashhur bo‘lgan. *Kichkina* laqabi uning gavdasiga nisbatan emas, balki yoshiga nisbatan qo‘llangan. Yuqorida qayd etganimizdek, uning emikdoshining nomi ham G‘iyosiddin bo‘lib, u N.ning otasidan yosh jihatidan kattaroq bo‘lgan. Voqean, uning o‘g‘li Sulton Husayn ham N.dan uch yosh katta edi. Birga o‘sayotgan ikki G‘iyosiddinni bir-biridan farqlash maqsadida N. ning otasi G‘.K. deyilgan va bu atama keyinchalik uning mashhur laqabiga aylanib ketgan. Aslida G‘.K. gavdali, pahlavon kishi bo‘lgan. Darvoqe, uning G‘iyosiddin Bahodir laqabi ham bejiz qo‘llanilmagan. Jumladan, Alisherning otasi sipohiy bo‘lgan va harbiy xizmatlari tufayli mansab pillapoyalaridan ko‘tarilgan. Unga berilgan Bahodir laqabi ham jangda ko‘rsatgan qahramonligi b-n bog‘liq.

Davlatshoh Samarqandiy “Tazkirat ush-shuaro” asarida G‘iyosiddinning harbiy bo‘lganini ta’kidlash b-n birga “...zamonasining mashhur kishilaridan va Chig‘atoy ulusi ulug‘laridandir. Sulton Abulqosim Bobur bahodir... hukmronligi davrida mamlakat idorasi va davlatga kafillik uning qo‘lida bo‘lib, sultonning yaqin kishisi edi”, deyish b-n kifoyalangan. Prof. A.Hayitmetov tarixchi Abdulmo‘minxon (XVI asr)ning “Tom-ut-tavorix” (“Mukammal tarixiy voqealar to‘plami”) asarida N.ning otasi yuksak olijanob fazilatlar sohibi sifatida tilga olinganini aniqlagan. Voqean, “Tavorix”da yozilishicha, G‘.K. ko‘pincha urush paytida qo‘lga tushgan “bandilarning ko‘plarining xun bahosini to‘lab, ozod qilib yuborgan”.

N.ning o‘zi ham “N.M.” asarida otasining oddiy xalqqa, muhtojlarga mehribon bo‘lganini mamnuniyat va faxr b-n qayd etadi: “Bu faqir (Navoiy)ning otasining faqr ahliga (kambag‘allarga, darveshlarga, tasavvuf ahliga) ko‘p irodat-u (mehr-u) ixlosi bor erdi”. Tazkirada yana hikoya qilinishicha, bir yili G‘iyosiddin podshoh topshirig‘i b-n Astrobodga borayotgan ekan. Havo qattiq sovuq bo‘lib, yo‘lda bir yupun kiyingan darvesh undan to‘nini so‘raydi. G‘iyosiddinning unga rahmi kelib, to‘nini yechib beradi. G‘iyosiddinning bunday oliyjanob ishlari nihoyatda ko‘p bo‘lgan. U XV asrning 50-yy.da bir qancha sana Sabzavor (Eron) viloyatiga hokimlik ham qilganini N.ning “M.N.” tazkirasida Mir Shohiy ismli shoirning jasadi Astroboddan vatani Sabzavorga olib kelingan paytda otasi bu yerda hukumat ishlarini boshqarib turganligi haqidagi qaydlaridan bilish mumkin.

N.ning otasini “Amir Kichkina” deb tilga olgan Faxriy Hirotiyning o‘z “Latoyifnoma”sida G‘.K.ning Sulton Abu Said mirzo saroyida xizmat qilgani haqidagi xabari yanada e’tiborga loyiq: “*Mirning tarjimayi holidan xabardor mo‘ysafid tarixchilar va to‘g‘ri so‘zli dunyo ko‘rganlar o‘z asarlarida shunday keltiradilarki, Mirga amirlik mansabi merosiydir. uning otasi Amir Kichkina Sulton Abu Sa’idning xizmatida edi. Garchi muhr-u mansabi bo‘lmasa ham, katta hurmatga ega edi*”. Mashhur tarixchi G‘iyosiddin Xondamir ham “Habib us-siyar”da Mirzo Ibrohim, Alauddavla, Boysung‘ur Mirzo, Shohruh Mirzo (1456–1457-yy.da bir muddat Hirot taxtiga o‘tirgan) tomonidan Abu Sa’id Mirzo b-n ittifoq tuzish maqsadida huzuriga elchilar yuborarkan, ularga hamrohlik qilish Amir Alisherning otasi G‘.K.ga topshirilgani, Abu Sa’id Mirzo esa elchilarni izzat-ikrom ila qabul qilib, kuzatib qo‘yganiga guvohlik bergan. Inchunun, bu ma’lumotlar G‘.K.ning N. 11-12 yoshlarida ekanida vafot etgani haqidagi ma’lumotni noto‘g‘riligini ko‘rsatadi. Bu paytda N. taxminan 16 yoshlarda bo‘lgan.

Shunisi diqqatga sazovorki, N.ning ham ota, ham ona tomonidan bo‘lgan ajdodlari shunday fozil, donishmand, insonparvar, g‘ayratli va talantli kishilar sifatida mamlakatni boshqarishda Temuriylarga katta yordam berishgan. Shu jarayonda ular temuriylarning eng yaqin kishilariga aylanib, mamlakatda o‘zlariga xos yuksak mavqeli xonadon ahli tarzida e’tibor qozonishgan. Ular orasidan shoir, sarkarda va davlat arboblarining yetishib chiqishi N. dunyoga kelgunga qadar ham davom etgan.

Davlatshohning o‘z qaydlarini “Sipohiy bo‘lishiga qaramay, fozillikni tashlamadi” deya yakunlashi G‘.K.ning ilm-fanni sevgan, fozil, saxiy, shoirtabiat va mardona kishi bo‘lganiga va N.ning ma’rifatli oilada kamol topganiga qat’iy ishora beradi.

Ad.: *Абдураззоқ Самарқандий. “Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн”. Қўлёзма. ЎзРФА ШҚМ, инв. №1825; Бабахаджаев М. Герат эпохи Алишера Навои. – Т., 1969; Зайниддин Восифий. Бадоеъ ул-вақоеъ. – Т., 1977; Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар бўстони. – Т., 1981; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985; Алишер Навоий. Бадоеъ ул-бидоя. МАТ. 1-жилд. – Т., 1987; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Вақфия. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий: манбаларнинг қиёсий-типологик, текстологик таҳлили. – Т., 2011; Абдуқодиров А. Амир Алишер Навоий. Ҳаёти ва ижоди. – Хўжанд, 2013.; Ғиёсиддин Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Т., 2015.*

E.O.

G‘IJJAKIY USTOD SAYID AHMAD (XV a.) – sozanda, xonanda, shoir. Buxoroda tug‘ilgan. Tahsilini kamolga yetkazgach, o‘sha davrning ilmiy va madaniy markazi bo‘lgan Hirotga kelib, Husayn Boyqaro saroyida xizmat qiladi. Xondamir “Xulosat ul-axbor” asarida uni N. homiyligida tarbiya topgan sozandalar qatorida zikr etadi va “xushchaqchaq, xushsurat va shirinso‘z kishi bo‘lib, g‘ijjakni yaxshi chalar edi” deb yozadi. Mirzo Haydar ham uning g‘ijjak va ud chalishning mislsiz ustasi bo‘lganligini ta’kidlab o‘tgan. U g‘ijjak chalishning yangi usullarini kashf etib, uning kosasi va dastasini takomillashtiradi. Natijada sadosi jarangdor va ta’sirchan bo‘ladi. G‘.U.S.A.ning g‘ijjak chalish usuli Hirotda behisob muxlislar paydo qilib, ko‘pchilik sozandalar unga taqlid qilganlar. U g‘ijjak chalishni o‘rganish u-n darslik va qo‘llanmalar yozadi, kamonli torli sozlar u-n kuylar yaratadi. G‘.U.S.A. yozgan musiqaga oid asarlar va u bastalagan kuylar Hirot va Buxoroda keng tarqalgan.

Hirot naqoraxonasidagi sozandalar guruhiga rahbarlik qilgan va ular u-n o‘ziga xos dasturlar ishlab chiqqan. U o‘z davrining Ustod Noiy, Ustod Hasanali Balaboniy, Ustod Qulmuhammad Udiy, Ustod Ali Xonaqohiy kabi mashhur sozanda va xonandalari b-n hamkorlikda ijod qidib, Sharq musiqasi tarixi taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan. U “Iroq”, “Buslik”, “Isfahon”, “Navo”, “Husayniy” kabi kuy va maqomlar ijod qilgan. Ta’bi nazmi ham bo‘lib, badiiy yetuk g‘azal va ruboiylar yozgan.

Ad.: *Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985; Муҳаммад Ҳайдар Мирзо. Тарихи Рашидий. – Т., 2010; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988.*

E.O.

“G‘OFILE QO‘YDI QADAM BOZORG‘A...” – mazkur misra b-n boshlanuvchi 19 baytli hikoyat “L.T.” dostonining “Istishhodig‘a hikoyat” sarlavhasi ostida XXXV bo‘limda keltirilgan. Darveshlar hayotiga oid bu rivoyatni N. to‘tining yo‘l azobiga toqat keltirmay, Hudhudga bergan savolidan so‘ng javob tariqasida bitadi. Bir g‘ofil darvesh o‘zini tasavvuf peshvosi qilib ko‘rsatishga harakat qiladi. Xizr (a.s.) ning libosi rangida kiyinib, bozorda kezar ekan, karomat va mo‘jizalar ko‘rsatishga qodir ekanligi haqida vaysab, odamlardan xayr-u ehson sifatida

pul va oziq-ovqat ola boshlaydi. Shu payt uning qarshisida haqiqiy murshid paydo bo‘lib, qo‘lidagi to‘rvasini ochishni so‘raydi. Murshid to‘rvaning ichida bulg‘anib yotgan narsalarni ko‘rib, ularni “harom” deydi va daromad qilish u-n unga “bir hovuch tufrog‘-u tosh” olib beradi. Ular shu zahotiyoq tillo va boshqa javohirlarga do‘nadi. Murshid esa ko‘zdan yo‘qoladi. Yashil to‘n kiygan soxta darvesh hayratdan lol bo‘lib, oh-voy chekadi, qilmishlari tufayli el oldida yuzi shuvut bo‘ladi.

N. mashaqqatlarga sabr qilish, ustozga e’timod etish, yengiltaklik, maynavozchilikka berilmaslik g‘oyasini ilgari surar ekan, yana bir bor so‘fiyona teran tafakkuri va so‘z qo‘llash mahoratini namoyon etadi:

Dedi: – “Pir ollimda kasb etkanni-tut,
Kim ko‘raykim hosil aylabsen ne qut”.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Мамадалиева З. Алишер Навоийнинг “Лисон-ут тайр” достонидаги рамзий образлар тизими. – Т., 2016.*

S.O‘.

G‘OFURBEKOV To‘xtasin Botirovich (07.05.1939. – Farg‘ona) – san’atshunoslik fanlari d-ri, prof. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi (1989), “Mustaqillik” nishoni (1992) va “El-yurt hurmati” ordeni (2014) sohibi. O‘nlab monografiyalar, darslik va o‘quv qo‘llanmalar, yuzlab ilmiy maqolalar muallifi. G‘.T.B. o‘z ilmiy tadqiqotlari doirasida Amir Temur va Temuriylar Uyg‘onish davri madaniyatiga katta e’tibor qaratgan. Mazkur shonli davrning daho so‘z san’atkori N.ning o‘zbek va fors musiqa san’ati rivojiga qo‘shgan hissasi hamda munosabati xususida olim o‘zbek, rus, ingliz, fors tillarida “Navoiy va musiqa”. Muammoga bir nazar. “Navoiy” almanaxi. № 1 (o‘zbek, ingliz va rus tillarida). 1991; “Alisher Navoiy va Eron madaniyati”. Вклад Иранских народов в развитие мировой цивилизации (rus, ingliz, fors tilida). – Dushanbe, 1992; “Hazrat Navoiyning musiqiy tafakkuri”. O‘zbekiston adabiyoti va san’ati gazetasi 2002; “Saylanma”. Toshkent: Musiqa. 2009; “Bastakorlik ijodiyoti: tarixi, tahlili, taqdiri”. Toshkent: Muharrir nashriyoti. 2019; “Alisher Navoiy ijodida musiqa san’atining o‘rni” kabi ilmiy maqolalar e’lon qilgan.

Ad.: *Ғофурбеков Т. Сайланма. – Т., 2009; Ғофурбеков Т. Бастакорлик ижодиёти: тарихи, таҳлили, тақдири. – Т., 2019.*

B.R.

G‘UL (ar.) – 1. Diniy aqidaga ko‘ra, har xil qiyofaga kirib, odamlarni yo‘ldan ozdiradigan maxluq; soya; jin. 2. Majoziy: haromzoda. 3. Zanjir, temir halqa. Gunohkorlar va zindon ahlining qo‘li va bo‘yniga taqiladigan temir halqa, zanjir. 4. Markaz, qo‘shinning markazi, qalb. N. she’riyatida qo‘llangan obrazlardan biri. M-n:

Vodiyi hijronda ag‘yorig‘a yor o‘ldum, ne tong,
Gar bo‘lur g‘uli biyoboniy bila devona do‘st.

Yoki:

Ham burung‘or, ham juvong‘or kinsigol,
Ham yana g‘ul-u hirovulda bu hol.

Ad.: *Ғиёс ул-луғот. Жилд 2. – Душанбе, 1988; Фарҳанги забони тожики. Жилд 2. – Душанбе, 1969; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4-жилд. – Т., 1985.*

A.A., E.O.

G‘ULOMOV Yahyo – (1908–1977, Toshkent) – O‘zbekistonda arxeologiya fanining asoschilaridan. Tarix fanlari d-ri (1960), prof., (1955), O‘zR FAning haqiqiy a’zosi (1966). O‘zR FA Tarix va arxeologiya insti-

tutining bo‘lim mudiri va direktori vazifalarida ishlagan. Ilmiy faoliyatini 1933-y.dan boshlagan G‘.Y. O‘zbekistonda sug‘orish tarixi mavzusi ustida ishlab, Amudaryo, Zarafshon, Qashqadaryo o‘zanlarini o‘rganish bo‘yicha muhim tadqiqotlar yaratib, Zarafshon, Xorazm, Farg‘ona vodiysining tosh davri tarixini tadqiq etishga muhim hissa qo‘shgan. Olim 1938-y.dan boshlab S.P. Tolstovning Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasida faol qatnashib, ilmiy ishlar yaratdi. U “O‘zbekiston tarixi”, “Samarqand tarixi” ko‘p tomli kitoblarining mualliflaridan biridir.

G‘.Y. O‘zbekiston madaniyati va adabiyoti tarixini o‘rganishga ham munosib hissa qo‘shgan. Uning bu yo‘nalishdagi yirik ishlaridan biri N. tavalludining 500 yilligi munosabati b-n 1948-y.da nashr etilgan “Ulug‘ o‘zbek shoiri” to‘plamidan o‘rin olgan “Alisher Navoiyning davrini o‘rganish haqida” deb atalgan maqolasidir. N. hayoti va u qoldirgan katta hajmdagi merosni o‘rganishda dastlab shoir yashagan davrni har tomonlama tasavvur etish nihoyatda muhimdir. N. davrida oid mavjud tarix va madaniyat manbalari asosida yaratilgan G‘.Y. tadqiqotida O‘rta Osiyo va Xurosonning XII–XV asrlardagi manzaralari keng yoritib beriladi. Olim o‘z asarida ijtimoiy-siyosiy hayotdagi muhim voqealar bayonida madaniy va adabiy hodisalarga ham qisqa to‘xtaydi. O‘rta Osiyo va Xurosonda mo‘g‘ullar hukmronligi xarobalari o‘rnida yuzaga kelgan Temur asos solgan markazlashgan davlatni ta’riflar ekan, olim davrning katta voqeasi bo‘lgan Sarbadorlar harakati, uning mavqeyi, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotga ta’siri masalalariga e’tibor qiladi. Maqolada O‘rta Osiyo va Xurosonda temuriylar sulolasining qad ko‘tarishi, uning asoschisi Amir Temurning harbiy yurishlari, sohibqiron shaxsiyatining butun murakkabliklari b-n tushuntirib beriladi. Maqolaning N. hayoti kechgan XV asrning ikkinchi yarmida ijtimoiy-siyosiy voqealariga bag‘ishlangan qismidagi tafsilotlar o‘quvchini o‘sha davrning keng manzaralari ichiga olib kiradi. Ulug‘bek davridagi Samarqandning ilmiy-madaniy markaz sifatidagi taraqqiyoti, Ulug‘bek rasadxonasi va unda olib borilgan kuzatishlarning ahamiyati, bu davrda yetishib chiqqan fan, madaniyat arboblarining xizmatlari mo‘jaz bayon qilib o‘tiladi.

G‘.Y. tadqiqotida Shohrux va Husayn Boyqaro hukmronliklari yillaridagi Xuroson va uning markazi Hirot hayoti keng yoritilgan. Shu o‘rinda N. va Husayn Boyqaro o‘rtalaridagi munosabat masalasi ham qalamga olinadi. Lekin muallif bu o‘rinda asosiy diqqatni N.ning Husayn Boyqaro hokimiyatidagi iqtisodiy va siyosiy hayotda xalq va mamlakat manfaatlaridan kelib chiqib amalga oshirgan ishlariga qaratgan. N. sa’y-harakatlari b-n barpo etilgan masjid va madrasalar, xonaqoh va shifoxonalar qurilishi misolida XV asr Hirotning arxitektura jihatidan yangilanishining tashabbuskori sifatida xarakterlangan.

Shuningdek, tilga olingan to‘plamda G‘.Y. qalamiga mansub “XV asrda O‘rta Osiyo shaharlarida binolar ansamblining traditsiyasi haqida” deb nomlangan maqola ham o‘rin olgan bo‘lib, unda N. tomonidan Injil arig‘i yoqasida qurilgan “Ixlosiya” madrasasi va “Xalosiya” xonaqohi haqida ma’lumot beradi. Bu binolarning qurilishi tarixi haqida fikr yuritar ekan, “Vaqfiya”da bayon etilgan ma’lumotlarga tayangan.

G‘.Y.ning N. davri tarixini o‘rganishga bag‘ishlangan asarlari hamma vaqt dolzarb bo‘lib qoladi.

Ad.: *Ғуломов Я. Алишер Навоийнинг даврини ўрганиш ҳақида. “Улуғ ўзбек шоири”. – Т., 1948; Ғуломов Я. XV асрда Ўрта Осиё шаҳарларида бинолар ансамблининг традицияси ҳақида (ўша тўпламда).*

S.O‘.

G‘ULUVV–G‘ULUV – (qiy-chuv, g‘avg‘o, g‘ovur-g‘uvur; haddan oshmoq, chegaradan oshmoq), lof urish, bo‘rttirish. Tasavvur qilish juda qiyin bo‘lgan, amalda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lmagan tasvir usuli. Mubolag‘aning turlaridan bo‘lib, unga ko‘ra ijodkor tomonidan aqlga sig‘maydigan, imkoniyatdan tashqari kuchli mubolag‘a qo‘llanilgan. Bunda biron vo-

qea Shu darajada bo‘rttiriladiki, bu hodisaning sodir bo‘lgani va bo‘lishi mumkinligiga mutlaqo ishonib bo‘lmaydi. G‘. xalq og‘zaki ijodi va mumtoz adabiyotda ko‘p uchraydi. Tabiat tasviri, obrazlar qiyofasi ta’rifi va asar qahramonlarning kuch-qudratini bayon etishda aqlga sig‘maydigan, hayotiylikdan yiroq voqea-hodisa G‘. vositasi bayon qilinadi. N.ning ijodida G‘.ning ko‘p namunalari uchraydi. Xususan, “F.Sh.” dostonida Farhod mingan kemaning uchi va tubi, balandligi-yu chuqurligini ta’riflashda Hut (Baliq) va Savr (Ho‘kiz) deb ataluvchi quyosh burjlariga hamda qadimgi diniy e’tiqodga ko‘ra, go‘yo yer katta ho‘kizning, ho‘kiz esa baliqning ustida joylashgan, – degan aqidaga ishora qilib, she’riyatidagi G‘. san’atidan foydalangan.

Uchi ko‘k Huti-yu Savrini sonchib,
Tubi yer gov-u mohisini yonchib.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Хўжанд, 1972; Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Т., 1983; Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т., 2015.*

E.Q.

SH

SHABDEZ (f. – shab – tun, dez – rang) tun rangli, ya’ni qora tusli (ot). Qadimgi Eronning sosoniylar sulolasiga mansub hukmdor Xusrav Parvezning mashhur otining nomi. Rumdan keltirilgan bu ot dunyodagi barcha otlardan baland va kuchli edi. Bal’amiy, Tabariy, Saolibiy asarlarida uning ta’rifi keltirilgan. Umuman, ot ma’nosida ham keladi. Majoziy *tun* ma’nosida ham qo‘llanadi.

N. “T.M.A.” asarida muarrixlar “hayrat tariqi bila” sanab o‘tgan Xisravga “muyassar bo‘lg‘on nimalar” qatorida Sh.ni ham sanab o‘tadi: “Yana bir ot edikim, Shabdezg‘a mashhur erdikim, soyir otlardin to‘rt qarish biyikroq erdikim, ul o‘lg‘ondin so‘ngra suratin tortturub, aning bila xursand bo‘lur erdi”.

Gahi Shabdezi olamgardidin deb,
Zamone ganji bodovardidin deb.

Xusrav Sh.ni shunchalik yaxshi ko‘rganki, o‘zi nima esa, otiga ham o‘sha taomni bergan. Sh. o‘lganda uning haykallarini yasaganlar. Xusrav farmoniga ko‘ra granitdan uning oti b-n birgalikdagi haykali ham Qutvus va Sinimmar degan ota-o‘g‘il haykaltaroshlar tomonidan yaratilgan. Rivoyatlarga ko‘ra, Xusrav kim Sh.ning o‘limi xabarini keltirsa, uni o‘ldiraman, deb qasam ichgan ekan. Ot o‘lganda otboqar bu xabarni yetkazish u-n o‘sha davrning mashhur bastakori va hofizi, Xusrav saroyining sozandasi Borbad huzuriga madad so‘rab boradi. U Shabdez nomli nihoyatda g‘amgin va ta’sirchan kuy yaratib, shu orqali sevimli otining o‘limi xabarini Xusravga yetkazadi va otboqarni o‘limdan saqlab qoladi.

Sh. Sharq mumtoz so‘z san’atidagi an’anaviy obrazlardan biri bo‘lib, u Xisrav Parvezning afsonaviy oti, umuman bebaho ot ma’nolaridan tashqari, tun oti, vaqt oti kabi ko‘pdan-ko‘p ma’nolarni badiiy tamsil etadi. Xususan, N. ijodida ham Sh. yuqoridagi ma’nolarni yuzaga chiqaradi:

Bodayi gulgun keturkim, shomi hijron men kibi
Yuz tuman Farhodni past aylagan Shabdez erur.
Charx chun bemehrdur, Parvezdek qoning to‘kar,
Mehrningkim, shomi siymin na’ldek Shabdezi bor.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 3. – Душанбе, 2004.*

E.O.

SHAVQIYA – N. tomonidan barpo qilingan, o‘rtasidan suv oqib o‘tgan musaffo va xushhavo bog‘.

Ad.: *Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985.*

D.A.

SHABUSTARIY MAHMUD (taxallusi; to‘liq ismi: Shayx Sa’duddin Mahmud bin Aminiddin Abdulkarim bin Yahyo Shabustariy (1290 – Tabriz, Shabustar qishlog‘i – 1321) – mashhur tasavvuf olimi va mutasavvif shoir. O‘z davrining asosiy ilmlarini egallagan Sh.M. fozil va donishmand kishi bo‘lib yetishadi. Eron, Xuroson, Misr,

Shom, Hijoz kabi Sharqning yirik shaharlariga sayohat qilib, mashhur ulamo va mashoyix suhbatiga yetishadi. Uning o‘zi bu haqda umri oxirida – 1319–1320-yy.da yaratilgan “Saodatnoma” asarida umrimning bir qismini tavhid ilmini o‘rganish u-n sarfladim, buning u-n Misr-u Shom-u Iroqda kunni tunga ulab yelib-yugurdim, oy-u yillar qishloqma-qishloq, shaharma-shahar kezdim, bu fanning ulamo-yu mashoyixini har yerda uchratib, ko‘plab nozik nuqtalarni jamladim va ular asosida ajib bitiklar bitdim, deb yozadi.

Safar chog‘ida Kirmonda oila qurib, farzandlar ko‘radi. Umrining oxirida tug‘ilgan qishlog‘iga qaytib, 33 yoshida vafot etadi. Vasiyatiga ko‘ra, ustozi Shayx Bahouddin Ya’qub Tabriziy yoniga dafn qilinadi. Qabri muborak qadamjolardan bo‘lib, ozarbayjon hukmdorlari tomonidan turli asrlarda uch marta ta’mirlangan.

Sh.M. dastlab nosir sifatida nom chiqarib, irfondan bahs etuvchi “Risolayi shohid” (“Shohid haqida risola”), “Mir’ot ul-muhaqqiqin” (“Oriflar ko‘zgusi”), “Haq ul-yaqin” (“Ishonchli haqiqat”) kitoblarini yozadi. “Gulshani roz” – uning ilk she’riy asari. Shundan keyin uch mingdan ortiq baytdan iborat “Saodatnoma” masnaviysini yaratadi. U muallifning safarlari va muloqotlari mahsulidir. O‘z zamonasining Bobo Hasani Surxobiy, Bobo Farajiy, Tabriziy, Xoja Muhammad Kajajoniy, Xoja Abdurrahim Tabriziy va Xoja Soyimuddin Tabriziy kabi besh nafar mashhur oriflari so‘zlari, faoliyati va maqomlariga bog‘liq holda vahdati vujud, vahdati shuhud, ma’rifat yo‘llari va tasavvuf masalalari xususida fikr yuritadi. Imom G‘azzoliyning “Minhoj ul-obidin” (“Taqvodorlar yo‘li”) asarini ham forsiyga tarjima qilgan. Pahlavon Mahmud qalamiga mansub deb qaralayotgan “Kanz ul-haqoyiq” (“Haqiqatlar xazinasi”) masnaviysi Eronda uning nomidan chop etilganki, ko‘pgina tadqiqotchilar buni shubha ostiga oladilar. Shuningdek, qator g‘azal va ruboiylar ham yozgan.

N. “N.M.” tazkirasida Sh.M.ga ham, uning asarlariga ham yuksak baho beradi: “Bu toifaning kummali (yetuk, komil) dindur. Bu fan ahli qoshida muqarrar va kalom-u maqoli bu toyifa tariqi adosida mustahsan. Tasnifot-u kutubi bor. Ul jumladin, “Haq ul-yaqin”durki, ulcha imkoni bor, bu qavm holoti va ta’rifida ham daqiq va ham mufid voqe’ bo‘lubdur. Yana “Shohid”durki, ul ham ishorat ahli tili bilan maorif bayon qilibdur, ul dag‘i ta’rifdin mustag‘niydir. Va mabdavu maod bobida yana bir kitobi bormi, bu tariqda suluk ahlig‘a ko‘p mufid-u muntij (foydali va natija beruvchi) voqe’dur. Yana “Gulshani roz”-durkim, ham zohir ahlining rangin-u purkor masnaviylari va ham haqiqat ahlining shirin-u fayzosor so‘zlarida andin ravonroq va purchoshniyroq (o‘ta lazzatbaxsh) va sho‘rangizroq (jazb etuvchi) va shavqomizroq nazm aytsa bo‘lg‘ayki, yo‘qdur! Va ul bu nav’ erkindurki, Mir Husayni bu toifa istiloh va tili bila necha savol bitib, Iroq mashoyixi afoziliga yiboribdur, ul savolotqa javob umidi bila va ul mushkilot halli tama’i bila. Agarchi savolot o‘ttuzcha ortuq, yo o‘ksuk bor, ammo o‘n yetti baytda nazm libosig‘a kiribdur. Alar nazarig‘a yetkach, ul mushkilot halli uchun ul savolot javobig‘a mashg‘ul bo‘lubdurlar va ul masnaviyni aytibdurlar. Va abyotini adadi ming bir voqe’ bo‘lubdur. Asmoulloh adabi bila muvofiq. Va unga “Gulshani roz” tasmiya qilibdurlar. Va Shayxning muborak marqadi Chabushtardadurki, Tabriz navohiysidadur”.

“Gulshani roz” – Sh.M.ning nomini dunyoga tanitgan mashhur asari. Tasavvuf ta’limotining eng asosiy masalalari va muhim tushuncha-istilohlarini nazmiy talqin qilgan bu asar nafaqat so‘fiylar va oriflar, balki ma’rifat asrori b-n qiziqqan barcha toifani birday o‘ziga jalb etib kelgan. U 1317-y. hazaji musaddasi maqsur (mahzuf) vaznida yaratilgan bo‘lib, mingdan ortiq baytni o‘z ichiga oladi. Asarning yozilish tarixi nihoyatda qiziq: xurosonlik shayx-shoir Amir Husayn Hiraviyning o‘z davri aql sohiblarini qiynagan savollar haqidagi she’riy nomasini elchi Sh.M. ishtirokchi bo‘lgan davraga kelib o‘qib beradi. Mahmudning ustozi bo‘lgan Aminiddin Tabriziy bu savollarga javob berishni unga topshiradi. Avvaliga nasriy asarlarida ayni masalalarda javob

berib o‘tganini bahona qilib, javob qaytarishni xohlamaydi, lekin elchi bu gal nazmiy javob talab qiladi. Shundan keyin u darhol badiha tarzida barcha savollarga javob qaytarib, elchi b-n birga Hiraviyga jo‘natib yuboradi. Oradan bir muddat o‘tgach, elchi bu masalalarni kengroq bayon etishni so‘raydi va Sh.M. bir necha soat ichida “Gulshani roz” masnaviysini yozib tugatadi.

Bu savollar va javoblar tasavvuf falsafasining asosiy masalalari − tafakkur, ma’rifat yo‘lining talabi, vahdat siri, olam mohiyati, o‘zlikka safar, komil inson, Allohning zot-u sifatlari, Xoliq-u maxluq, orif-u ma’ruf, Analhaq va boshqalardan bahs yuritadi, ayni paytda, yuz, zulf, xat, xol, sharob, sham, shohid, xarobotiy, but, zunnor, tarsolik kabi so‘fiyona istilohlarning ma’nolariga oydinlik kiritadi. Muallif bu tushunchalarni she’riy yo‘sinda aniq va lo‘nda, sodda va tushunarli ta’riflash barobarida, tamsil yo‘li b-n dalillar keltirib, yanada keng va chuqur izohlaydi.

XIV asrdan boshlab “Gulshani roz”ga ko‘plab sharhlar yozilgan. Ozar olimi Sh.Ismoilov ulardan 18 tasini ko‘rsatadi. Bu sharhlar orasida Ne’matulloh Valiyning “Ravzayi athor” (“Pokiza bog‘”) va Shamsiddin Muhammad Lohijiyning “Mafoteh ul-e’joz fi sharhi “Gulshani roz” (“Mo‘jizalar kaliti yoki “Gulshani roz” sharhi”) nomli sharhlari mashhur.

Bu asarni Amir Temur ham sevib mutolaa qilganligi ma’lum. Sohibqiron tilidan naql qilishlaricha, u bir mahal “Masnaviyi ma’naviy” va “Gulshani roz”ni sevib o‘qigani, ayniqsa, “Gulshani roz”dan behad zavq olgani va uning sharofatidan Ozarbayjonga qo‘shin tortganida, Sh.M. vatani bo‘lgani u-n ham Shabustar qishlog‘iga tegmay o‘tganini aytadi.

N. temuriyzodalardan Abulqosim Boburning ham tasavvufga oid asarlardan Faxriddin Iroqiyning “Lama’ot”i b-n Sh.M.ning “Gulshani roz”iga muhabbati ayrichaligi haqida “M.N.” tazkirasida ma’lumot berib o‘tadi.

“Gulshani roz” o‘zidan keyingi Sharq so‘z san’atiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Bu ta’sirdan o‘zbek adabiyoti ham chetda emas. O‘zbekiston xalq shoiri J.Kamol tomonidan u o‘z vaznida o‘zbek tiliga tarjima qilingan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Маҳмуд Шабустарий. Гулшани роз. – Т., 2013; Шайх Маҳмуд Шабустарий. – Теҳрон, 1382 (ҳ.-ш.); Исмаилов Ш. Философия Махмуда Шабустари. – Баку, 1976; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988–1989; Маҳмуд шабустарий. Рубоийлар // Донишмандлар туҳфаси. – Т., 2009. Латипов Ҳ. Маҳмуд Шабустарий ва унинг “Гулшани роз” асари // “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2011, 4-сон.*

E.O.

“SHAVQI NAVO” – taniqli tarjimashunos olim va publitsist Zuhriddin Isomiddinovning N. haqidagi maqolalari b-n birga, g‘azal, mustazod va fardlari sharhidan iborat kitobi. Kitobdan muallifning “Navoiyning ideali”, “Navoiyning jur’ati haqida Boburning bir qaydi”, “Adabiyotimizning mavlud oyi”, “Navoiyning so‘zlari va Navoiy haqida so‘zlar” nomli 4 ta maqolasi, shoirning 35 ta g‘azali, 2 ta mustazodi va 9 ta fardi sharhi o‘rin olgan. O‘zining e’tirof etishicha, bu sharhlar n.shunosning ilmiy-akademik uslubdagi emas, balki bir navoiysevarning ilmiy-ommabop sharhlari hisoblanadi. Yana bir o‘ziga xos jihati, kitobda, asosan, N. qo‘shiqqa aylangan she’rlari sharhlangan va keng o‘quvchilar ommasiga mo‘ljallangan. Zero, “har bir yangi talqin shoirning ruhiy olami, badiiyati sirlarini inkishof etish yo‘lida qo‘yilgan bir qadam” ekanligi shubhasiz.

Maqolalar o‘ziga xos qiziqarli fikr-u qarashlarni ilgari surgani b-n ajralib turadi. M-n, “Navoiyning ideali” maqolasida ideal obraz darajasiga ko‘tarilgan Farhod obrazida Muhammad (s.a.v.)ga xos ba’zi sifat va fazilatlar aks etgani va Payg‘ambarga ishoratlar mavjudligini dalillashga harakat qiladi. Ayni paytda, “Xamsa”

dostonlarini ham yangicha tasniflaydi: “Hayrat ul-abror” – o‘ziga xos hamd, “Farhod va Shirin” – na’t, “Layli va Majnun”da shoir Allohga ishqini kuylagan, “Sab’ai sayyor” Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy kabi o‘zining buyuk salaflari vasfiga bag‘ishlangan, “Saddi Iskandariy” esa “Iskandari soniy” Husayn Boyqaro madhida.

“Navoiyning jur’ati haqida Boburning bir qaydi” maqolasi “Boburnoma”da keltirilgan bir qayd asosida N.ning qanday qilib Husayn Boyqaroni shialikni davlat dini deb e’lon qilishdan to‘xtatib qolgani tarixini yoritish va bu qarorning kelib chiqish sabablarini oydinlashtirishga bag‘ishlangan.

Xullas, ushbu kitob, muallifning o‘z ta’biri b-n aytganda, N.ni o‘z holiga ko‘ra his etishi va o‘z idrokiga yarasha anglashi mahsuli sifatida dunyoga kelgan.

Ad.: *Алишер Навоий. ТАТ. 10 жилдлик, 1-10-жилдлар. – Т., 2011; Исомиддинов З. Шавқи наво. – Т., 2021.*

E.O.

SHAVQIY (XV asr, Chechaktu) – shoir. N. ning “M.N.” tazkirasida ma’lumot berishicha, u o‘zi maqbul va tabiati muloyim yigit bo‘lgan. Ham turkiy, ham forsiyda go‘zal she’rlar ijod qilgan. Har 2 tildagi ijodiga bittadan matla’ keltiradi. Jumladan, turkiy matla’si:

Borib ovvora ko‘nglum zulfing ichra mubtalo qoldi,
Tarahhum qilki, mendin bordi-yu, emdi sango qoldi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

M.A.

SHAVQIY KATTAQO‘RG‘ONIY – (1785–1861-yy.) Abulqosim o‘g‘li Muhammad Sharif Shavqiy Kattaqo‘rg‘oniy iste’dodli shoir, XIX asr o‘zbek adabiyotining ko‘zga ko‘ringan vakili. Kattaqo‘rg‘onning Alijon qishlog‘ida tug‘ilib, o‘sgan. Ilk savodini o‘z ona yurtida olgan shoir tahsilini keyinchalik Buxorodagi Govkushon madrasasida davom ettiradi. O‘zbek, tojik va arab tillarida ijod qilgan. Sh.K. 1841-y. Buxoroda “Debochayi devon va g‘azaliyoti Shavqiy” devoniga tartib bergan. Ijodida g‘azal janri salmoqli o‘rin egallaydi. Shu bilan birga muxammas, musaddas, musabba’, musamman, muashshar hamda ruboiy, masnaviy, fard, qit’a, marsiya, chiston kabi janrlar ham uchraydi. Lirik she’rlarining umumiy hajmi 3000 misraga yaqin. Sh.K.ning ijodi turli mavzularga bag‘ishlangan. Xususan, uning *“Alijon bormag‘il qalloshlikdin, Tiling tishlab o‘larsen ochlikdin”* misralarida ijtimoiy tengsizlik, adolatsizlik, o‘zi yashagan davrdagi siyosiy tuzumdan nolish, og‘ir iqtisodiy ahvol, muhtojlik va qashshoqlikning mehnatkash xalq boshiga turli kulfatlar yog‘dirgani haqidagi norozilik kayfiyat aks etadi.

Vozih Buxoriyning “Tuhfat ul-ahbob fi tazkirat ul-ashob” asarida ma’lumot berilishicha, Sh.K. islom va shariat qoidalari haqida bahs yuritilgan “Muxtasar ul-viqoya” masnaviysini nazm yo‘lida sharhlab, “Mir’ot ul-muxtasar” asarini yozgan. Asar 26 fasldan tashkil topgan, taxminan 23 000 misradan iborat. Oxirida arabcha so‘z va istilohlarning ma’nolariga izoh sifatida “Hallul lug‘at” ilova qilingan. Shu b-n bir qatorda arab tili grammatikasi (sahv, nahv)ga oid “Risolayi qofiya yo mir’ot un-nahv” asarini yozgan.

Sh.K. N. ijodiga ulkan ixlos, muhabbat va qiziqish b-n qaragan, fikr-g‘oyalaridan ilhomlangan. M-n:

Burnog‘i rasolari zamona
Go‘stardilar el aro nishona.
Bir necha kitob debon Navoiy,
Yetkazdilar hazinlara davoye.

Sh.K. N. ijodiga xos adabiy an’analarini davom ettirgan, g‘azallariga tazmin va taxmislar bog‘lagan. Xususan. N.ning

Zihi husning zuhuridin tushib har kimga bir savdo,
Bu savdolar bila kavnayn bozorida yuz g‘avg‘o.

matla'li g'azaliga quyidagi misralarni qo'shib, 11 band (55 misra)dan iborat taxmis bog'laydi:

Shabistoni adamdin kelturib dunyovu mofixo,
Tajalligoh zoting aylading oyinayi oshiyo,
Biri mahrumi vasling, birni qilding volayi shaydo.

N.ning:

Ne xush bo'lg'ay ikovlon mast bo'lsak vasl bog'inda,
Qo'lum bo'lsa, aning bo'ynida-yu og'zim qulog'inda,

deb boshlanadigan mashhur g'azaliga ham musaddas bog'lagan. Jumladan,

Falakda edi ohim, qonli yoshim ko'z qarog'inda,
Ketib sabr-u qarorim dilbari Shirin so'rog'inda.

Yururmen telbarab, Farhod yanglig' hajr tog'inda,
Xayolida bo'lur zikrim, ko'ngul hushyor chog'inda.

Ne xush bo'lg'ay ikovlon mast bo'lsak vasl bog'inda,
Qo'lum bo'lsa, aning bo'ynida-yu og'zim qulog'inda...

Shoir Sh.K. 1861-y.da Kattaqo'rg'onda vafot etadi hamda Abulqosim qishlog'ida joylashgan "Xo'ja Abdurahmon ota" qabristoniga dafn qilinadi. Mazkur makon hozirgi kunda muqaddas qadamjolardan biridir.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Орзибеков Р. Шавқий Каттақўрғоний ва унинг адабий мероси: фил.фан.номз. дисс. – Самарқанд, 1963; Орзибеков Р. XIX аср ўзбек адабиёти тарихига доир материаллар (Каттақўрғон шоирлари). – Самарқанд, 1985.*

E.O.

SHAVQIYA BOG'CHASI – N. tomonidan barpo etilgan bog'cha. Hirot atrofida bo'lgan. O'zining yaratuvchilik, bunyodkorlik odatiga sodiq bo'lgan ulug' shoir poytaxt atrofida bir qator go'zal va obod maskanlar barpo etgan. Bu haqda Xondamir shunday ma'lumot beradi: "Sohibi tamkin amir ul jannat monand shaharning (Hirotning) atrofida yana bir talay bog'-u bo'stonlar qurdirganlar". Xondamir ularning nomlarni sanab o'tadi va ular orasida Sh.B.sini ham qayd qiladi. Uning yozishicha, Sh.B. juda sof, toza manzil bo'lib, o'rtasidan ariq oqib o'tgan.

Ad.: *Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 2002.*

Q.E.

SHAYBONIYLAR – o'zbek xonlari sulolasi. XIII asrda yashab o'tgan Shaybanxon bularning ajdodi bo'lgani u-n shu nom b-n atalgan. Ushbu sulolaning turli tarmoqlariga mansub xon va sultonlar uzoq vaqtlar davomida keng hududlarda hukmdorlik qilganlar: Ural va Edil (Volga) bo'ylarida, Xorazmda, Dashtda, Qrim va Turonda va h.k. Ular orasidan ko'plab mashhur hukmdorlar chiqqan. Jumladan, Abulxayrxon Dashti Qipchoqda o'zbeklar davlatini barpo etib, uzoq yillar taxtda o'tirgan va qudratli hukmdor bo'lgan. Uning nabirasi Shayboniyxon Samarqandni egallab (1500) Movarounnahrni o'z hokimiyati ostida birlashtirgan. Ushbu sulolaning mashhur vakillaridan biri Ubaydullaxon edi (1540-y.da vafot etgan). Sh. Movarounnahrda XVI asr oxiriga qadar hukmdorlik qilgan. Ularning so'nggi vakili Abdulmo'minxon 1598-y.da suiqasd natijasida o'ldirilgan va shundan so'ng hokimiyat Ashtarxoniylar sulolasi qo'liga o'tgan. N. asarlarida bevosita Sh.ga doir qaydlar, ularning nomlari uchramaydi. Lekin N. davlat arbobi, ikkinchi tomondan, tarixni, chuqur o'rgangan olim sifatida Sh.ni yaxshi bilgani shubhasizdir. Muhammad Shayboniyxon Samarqandni olganda N. tirik edi. Bu voqeaning aks-sadosi Hirotga ham yetib borgan. O'sha vaqtda N. haj safari orzusida edi. Uning huzuriga shayxulislom Sayfiddin Ahmad boshchiligida poytaxt Hirotning obro'li a'yonlari tashrif buyurgan va ushbu safarga bormaslikni iltimos qilganlar. Bunda ular mamlakatning tinchligi va

hududlarining daxlsizligi N.ga bog‘liq ekanligini aytib, uning Xurosonda qolishini taqozo etuvchi bir qator omillarni sanab o‘tganlar, Ular orasida Shayboniyxon tomonidan solib turilgan xavf ham bor edi. Bu xususda ular shunday deganlar “Shayboniyxon Movaraunnahrni istilo qilgan. Amudan o‘tish xohishi bordir... shariat yuzasidan shunday paytlarda haj vojib emasdir”. Xalq va mamlakat manfaatini hamma narsadan ustun qo‘ygan buyuk shoir ularning bu iltimosini qabul qilgan.

Ad.: *ЎзМЭ. 9-жилд. – Т., 2005; Муҳаммадёр ибн Араб Қатағон Мусаххари билод. – Т., 2009; Абулғозий. Шажарайи турк. – Т., 1992; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985.*

Q.E.

SHAYDA – “X.”dagi epizodik obraz. Doro qo‘shini pahlavonlaridan birining ismi. “S.I.” dostonida Dorodan ko‘p jabr-sitam ko‘rib, Iskandar xizmatiga o‘tib ketgan Boriq Barbariy ikki shoh qo‘shini yuzma-yuz kelganda, yakkama-yakka jangga chiqadi va o‘ziga raqiblarini chorlaydi. Shunda Doroning pahlavonlaridan Harron maydonga chiqadi va yengiladi. So‘ngra Harronning qarindoshi bo‘lmish jasur Sh. Boriq Barbariyning qarshisiga keladi va qattiq olishuvdan so‘ng u ham yengiladi:

Laqab Shayda birla anga fosh o‘lub,
Nasab birla Harrong‘a qardosh o‘lub.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

E.O.

SHAYPOL – “S.I.” dostonida Iskandarning qo‘shin boshliqlaridan biri. Doroga qarshi urushga saf tortgan Iskandar qo‘shinini ta’riflar ekan, N. Sh.ni quyidagicha tasvirlaydi:

Sipahdor alar ichra Shaypol o‘lub,
Tahavvurda chun Rustami Zol o‘lub.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011.*

M.A.

SHAYX – yoshi ulug‘, qabila boshlig‘i, yetakchi, pir. Orif zotlarga, irshod ahliga ham Sh. deya murojaat etishgan. “N.M.”da Xoja Ahmad Yassaviy shunday ta’riflanadi: “Turkiston mulkining shayx ul-mashoyixidur. Maqomoti oliy va mashhur, karomoti mutavoli va nomahsur ermish. Murid-u as’hobi g‘oyatsiz va shoh-u gadoning irodat va ixlosi ostonida nihoyatsiz ermish. Imom Yusuf Hamadoniy (q.s.)ning as’hobidindur”. Tazkirada, deyarli, barcha valiylar shayx sifatlashi b-n sifatlanadi. Tasavvuf ilmida murshid uch sinf: suhbat, tarbiya hamda tasavvuf haqida nazariy bilim beruvchi ta’lim shayxlariga ajratilsa-da, tariqatda *suhbat* va *tarbiya Sh.lari* muhim sanalgan. Suhbat Sh.i – suhbatlarda ham bilimi, ham holi b-n ta’sir o‘tkazuvchi murabbiy. Ta’kidlash joizki, suhbat payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) va sahobalarning yo‘li bo‘lib, hamma zamonlarda ham muhim ahamiyat kasb etgan. Deyarli, barcha tariqatlar ta’lim dasturida eng ahamiyatli usul Suhbatdir. Zero nafaqat tariqat shoirlari ijodida, balki mumtoz adabiyotimizda ham *suhbat, suhbatdosh, musohib, suhbatgoh* kabi kalimalar istiloh darajasiga ko‘tarilgan. Suhbat shayxlarining faoliyati barcha tazkira va manoqib mualliflarining ham diqqat markazida turgan. “N.M.”da Shayx Saydaloniy (q.t.s.)ning suhbat to‘g‘risidagi qimmatli fikri keltiriladi: “Ul debdurki, Haq bila suhbat tuting va agar tuta olmasangiz ul kishi bila tutungki, ul Haq bila suhbat tutar, to aning suhbati barakoti sizni Haqqa yetkurgay”. Bahouddin Naqshband hazratlarining quyidagi fikrlari alohida e’tiborga molik: “Va der ermishlarki, bizing tariqimiz suhbatdur va xilvatda shuhratdur va shuhratda ofat. Xayriyat jam’iyatdadur va jam’iyat suhbatda bu shart bilaki, bir-biriga nafy bo‘lulg‘ay... Ishorat angadurki, agar jam’i bu yo‘l soliklari bir-biri bila suhbat tutsalar, anda ko‘p xayru barakatdur...”.

Muridlar suhbatlarda murshidning ma’naviy

hollaridan ta’sirlangan, fayz-u futuh olishgan. Eng muhimi, suhbat xayri barokotidan murid basirati ochilib, qalbiga ilhom-u kashflar yog‘ilgan hamda ruhni sayqallash boshlangan. Tarbiya Sh.i – ota-ona farzandini tarbiya etib ulg‘aytirganidek, bu shayxlar muridlarini ma’nan voyaga yetkazadi. Ular *tariqat Sh.i, irshod Sh.i, taslim Sh.i* ham deyilgan. Abdulkarim Qushayriy ta’kidlaganidek: “Tarbiya shayxlari ham muallim, ham murabbiy, ular ham ilm beradi, ham axloqni tarbiyalaydi”. Alloh valiylarini sevib, ularning hayotini namuna yanglig‘ qabul qilish muridning qalbini fayz-u nurga to‘ldirgan. *Qol Sh.laridan* farqli o‘laroq *Hol Sh.lari* so‘fiylikda kamolga erishgan, o‘rgangan ilmlarini azimat ila muridlariga o‘rgatgan va ularni maqsad manziliga yetkazgan shayxlardir.

Demak, *tarbiya va suhbat* Sh.larini bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. Faqat tarbiya usullarida ma’lum jihatlargina farqli yoxud ba’zi amaliy tomonlar ustuvorlik qiladi, xolos. Ba’zi tariqatlarda zuhd, ayrimlarida xilvat, yana birlarida suhbatga tayanilgan. Tariqat maktablarining tarbiya usullarini bir-biridan keskin farqlab bo‘lmaydi. Chunki ularning maqsad va manbasi yagona. Qodiriyada tush, kubroviyada xilvat, naqshbandiyada suhbatga alohida ahamiyat berishgan. Lekin har murid tush, uzlat, suhbat tajribasi ma’rifatining barchasidan bahramand bo‘lgan. Murshidining e’tibori ko‘proq muridining xilvat yoxud tushiga qaratilsa-da, zohiran muridning yolg‘izlanishi, shayxidan uzilishini ko‘rsatadigan bu hollarning birortasida u ma’nan murshididan uzoqlashmaydi.

Ruh tarbiyasini riyokor, ilmi holdan bexabar, faqatgina da’vosi katta “shayx”larga topshirishdan qattiq xavotirda bo‘lishgan.

Riyokor Sh.lar haqidagi qarashlar, deyarli, barcha mumtoz ijodkorlar diqqat-e’tiborida bo‘lib, hamisha murodtalab muridlar ogohlikka chorlangan. Ayniqsa, ma’rifatparvar N.ning murshidga ehtiromi qanchalar baland bo‘lsa, riyokor, tamagir Sh.larga nisbatan nafrati ham hech bir ijodkorda uchramaydi. “Meni ishqdan man etar soda shayx” deya, hatto “Shayx” radifli g‘azallar bitgan mutafakkir shoir “M.Q.” asarida “Riyoyi shayxlar zikrida” nomli alohida bob ajratib: “Hayhot-hayhot, uyat, yuz ming uyat. Turfa bukim, bu mazharg‘a muridlar ham bor, xizmatida barcha sheftau qaror. Ul bu do‘konni yurutib tadbir bila va ma’rakani qurub tazvir bilakim, shayoting‘a mahalla hayratdur va devi laing‘a mujibi ibrat va nafratdur”, – deydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

Z.R.

SHAYX ABDULLOH (XV asr, Hirot) – shoir. N. “M.N.” tazkirasida ma’lumot berishicha, “agarchi majnunshior kishidur, ammo chun salim fitrati bor, goh-goh tiliga nazmlar o‘tar”. Xotini ham Bediliy taxallusi b-n she’rlar yozib, Hirotda shoira sifatida tanilganidan N.: “Desa bo‘lurkim, aning uyida zano-mardi xushta’bdur”, – deb yozadi. O‘g‘li Shayxzoda Ansoriy ham muammonavis shoir bo‘lgan. N. Sh.A. ijodidan namuna sifatida quyidagi matla’ni keltiradi:

Mani miskin ba sari ko‘i tu harchand davidam,
G‘ayri ohe-yu sirishke zi dil-u dida nadidam.

Tarj: Meni miskin sening ko‘yingda harchand yelib-yugurmay ko‘ngil ohi-yu ko‘z yoshidan bo‘lak narsa ko‘rmadim.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

E.O.

“SHAYX ABULABBOS...” – N.ning “L.T.” dostonida “Faqr-u fano vodiysining adosi” (7-vodiy)dan keyin berilgan hikoyatning bosh qahramoni. Tarixiy shaxslar b-n bog‘liq ibratli fikrlar aks etgan hikoyatlar sirasidagi bu hikoyatda din va tavhid masalalari bo‘yicha donishmand Shayx Abulhasan Xaraqoniy (vafoti h. 425, mil. 1034)

ning piri Sh.A. Qassob Omuliyning hayoti va qarashlariga oid bir lavha keltirilgan. Sh.A. asli ismi Ahmad ibni Muhammad ibni Abulkarim.

Hikoyat 29 baytdan iborat. Unda bayon qilinishicha, Sh.A. turgan xonaqohga birov kirib keladi va tahorat u-n "ibriq" (obdasta) talab qiladi. Unga obdasta beradilar. U bir necha obdastani urib sindiradi. Muridlar bu holatdan Sh.A.ni xabardor etadilar. Sh.A. muridlariga u kimsa qancha talab qilsa, shuncha obdasta berishlarini buyuradi. "Xonaqoh sahniga kirgan beadab" berilgan hamma obdastalarni chil-parchin qiladi. Unga xonaqohda obdasta qolmaganini aytadilar. U endi shunday talab qo‘yadi:

Dedi: "Gar ibriq yo‘qtur qoytingiz,
Boribon o‘z shayxingizga oytingiz,

Kim saqolin hozir etsun munda bot,
To topay bu amr bandidin najot.

Sh.A. obdastlarni sindirgan "bebok"ning so‘zlarini eshitishi b-n xonaqohga kirib keldi. Necha yillardan buyon yuvib-tarab yurgan soqolini qo‘llari b-n tutib, "qassobga soqol nimaga kerak?" deb, obdastalarni sindirib, tahorat olgan beadabning oyoqlarini artishi u-n tutadi. "G‘ofili bebok" Sh.A.ning bunday kamtarona harakatidan xijolatda lol bo‘lib, o‘zini shayx oyog‘iga tashlaydi va hushdan ketadi.

Soliki foniy anga solib nazar,
O‘zlukidin qo‘ymadi rang-u asar.

Bu sifat noqisni takmil ayladi,
Misni oltun birla tabdil ayladi.

Darhaqiqat, N. fano vodiysining mohiyatini yoritish u-n ham ushbu hikoyatni keltiradi. Shoir ma’naviy kamolot masalasini qo‘yarkan, uning yaxshi timsoli sifatida Sh.A. obrazini yaratgan. "Soliki foniy" – Sh.A.ning "beadab" kimsaga nazar tashlagach, u hushdan ketib, o‘ziga kelganda barcha noqisliklarini tark etadi va Haq yo‘lga kiradi. N. Sh.A.ning bir nazar ila noqisni takmil etishini misni oltinga evrilishiga mengzab, juda o‘rinli tashbeh qo‘llaydi. Hikoyat orqali Fano maqomiga yuksalgan sayri suluk ahlining fazilatlari, himmati kitobxonga yana-da yorqin anglashiladi.

Shu mazmundagi hikoyat Abdurahmon Jomiyning "Nafohat ul-uns" asarida ham bor.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Бертельс Е.Э. Избранные труды. Суфизм и суфийская литература. – М., 1965; Мамадалиева З. Алишер Навоийнинг "Лисон-ут тайр" достонидаги рамзий образлар тизими. – Т., 2016.*

S.O‘.

"SHAYX ABUSAID ABULXAYR..." – N. ning "L.T." asarida (qushlardan birining Hudhudga tariqat yo‘li mashaqqatli, uni darmonsiz va kasalmand jism qanday nihoyasiga yetkazishi mumkin, degan savoliga Hudhud "Zaif tana kishini oqibat o‘limga eltadi, bas, shunday ekan, yor (Alloh) yo‘lida jonni fido qilish kerak", deb javob bergandan keyin dalil sifatida) CXLIII bo‘limda keltirilgan hikoyatning bosh qahramoni.

Hikoyat 15 baytdan iborat bo‘lib, unda hikoya qilinishicha, Sh.A.A. ilohiy ishqni o‘ziga bosh maqsad qilib oladi. Ko‘zlagan niyatiga erishish u-n tarkidunyochilikka beriladi va ko‘p vaqtni dasht-u tog‘larda o‘tkazadi. Kunduzi Alloh nomini tinimsiz takrorlab, kechqurunlari bir vayronadagi quduq cho‘piga o‘zini oyog‘idan osib, uzoq vaqt turadi, oqibatda o‘ladi. Shundan so‘ng hikoyat so‘nggida N. xulosa qilib shunday yozadi:

Ishq aro budur eranlarning ishi,
O‘lmayin topmas bu davlatni kishi.

Sh.A.A. hayoti b-n bog‘lab keltirilgan bu afsona-rivoyatda irfoniy ma’no ifoda topgan. Sh.A-.A., aslida, tarixiy shaxs. U mashhur so‘fiylardan bo‘lib, ismi Fazlulloh, Xurosonda tug‘ilgan, hijriy 1048-y.da vafot etgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Шарипов Ш. Алишер Навоий "Лисон ут-тайр" достонининг генезиси ва ғоявий-бадиий хусусиятлари. – Т., 1982.*

S.O'.

SHAYX ABU BAKR NISHOPURIY... – N.ning "L.T." asarida Hudhudning bir qush b-n "kamolot"ga erishish masalasidagi 18-savol-javobidan keyin keltirilgan CXXXVII bo'limdagi 21 baytdan iborat illyustrativ hikoyat qahramoni – shayxning nomi. Dostondagi Sh.A.N. hayoti bilan bog'liq bu rivoyatga Attorning "Mantiq ut-tayr" asarida berilgan afsona asos bo'lgan.

Unda hikoya qilinishicha, Sh.A.N. Nishopurdan sayohatga chiqadi. Uni juda ko'p murid va muxlislari tantanalar b-n kuzatib boradilar. Shayx bu hashamatlardan istihola etadi, ko'ngliga g'ashlik tushadi. Nafsi vasvasa qilib, kibrlanib ketishdan qo'rqib, chora izlaydi:

Bu mahalda bir eshak aylab fig'on,
Chiqdi ondin bir biyik el nogahon.

Shayxqa bu ramzdin vaqt o'ldi xush,
Vajd-u raqs aylab yiqilib qildi g'ash.

Shu paytda yo'lda duch kelib qolgan eshakning xatti-harakatidan ibrat olgan shayx baqirib-qichqirib raqsga tushadi va go'yoki o'zidan ketib yiqilgan bo'ladi. Murshidi komilni bunday holatda ko'rgan odamlar tezda tarqalib ketishadi. Maqsadga erishgan Shayx ular haqida deydi:

Yo'qsa har mag'rur, duni bulhavas
Bir biyik davlatqa topmas dastras.

Ma'lum bo'ladiki, faqr oyinida "xayl-u sipoh" b-n bo'lmoqlik solikni maqsaddan chalg'itadi. Shuning u-n Sh.A.N. fano vodiysida yolg'izlikni – vahdatni iroda etadi. N. mazkur hikoyat orqali tasavvuf maslagining amaliy bosqichlarini shu mazmundagi tarixiy voqealarga bog'lagan holda mahorat b-n bayon qilgan.

"L.T."dagi tarixiy shaxslar bilan aloqador ibratli fikrlar aks etgan hikoyatlar guruhiga kiruvchi ushbu qissa qahramoni Sh.A.N. tarixiy shaxs Abdullo ibn Muhammad bo'lib, 238–328 (853–935) yy.da yashagan. U hadisshunoslik va qonunshunoslikda mashhur mutasavviflardan.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Бертельс Е.Э. Избранние труды. Суфизм и суфийская литература. – М., 1965; Мамадалиева З. Алишер Навоийнинг "Лисон-ут тайр" достонидаги рамзий образлар тизими. – Т., 2016.*

S.O'.

SHAYX ALI TAG'OYI (Shayx Alibek – XV asrning 2-yarmi – XVI asr boshi) – Badiuzzamon mirzo amirlaridan. Ismiga "tag'oyi" so'zining qo'shilishiga qaraganda, Badiuzzamonga ona tarafdan qarindosh bo'lgan. Badiuzzamon Astrobodda, so'ngra Balxda hokim bo'lganda Shayx Alibek uning huzurida edi. Shahzoda otasiga qarshi isyon ko'tarib, urushga otlanganda Shayx Ali tag'oyini Balx qal'asini qo'riqlash u-n qoldirgan (1497). Badiuzzamon mag'lubiyatga uchrab qochib ketgandan so'ng Sh.A.T. Balxni Sulton Husayn mirzoga topshirgan va o'zi ham uning huzurida qolgan. Shahzoda otasiga qarshi dushmanlikni davom ettiradi. Otasi u b-n yarashish maqsadida Sh.A.T.ni Shayx Jaloliddin b-n birga elchi qilib yuboradi. Ular qaytib kelib Badiuzzamon Balx viloyatini yana unga qaytarib berilishini istayotganini va shu shart b-n sulhga rozi bo'lishi haqidagi xabarni yetkazadilar (1498-y. 21-iyul). Sulton Husayn bu shartga rozi bo'lmagan va urushga tayyorlana boshlagan. Ota-bola o'rtasida yana qonli janglar boshlanishidan tashvishga tushgan N. Sulton huzuriga kelib, uni o'g'li b-n yarashishga undaydi. N.ning maslahati b-n Husayn Boyqaro Seiston va Faroh viloyatlarini Badiuzzamonga berishga rozi bo'ladi va ular orasida yarash bitimi tuziladi (1498-y. avgust).

Sh.A.T. yana Badiuzzamon huzurida xizmatini davom ettiradi. Sulton Husayn vafot etib, Ba-

diuzzamon ukasi Muzaffar mirzo b-n sheriklikda taxtga o‘tirganda, Shayx Ali tag‘oyini o‘z tomonidan Hirot dorug‘asi etib tayinlagan. Muzaffar mirzo tomonidan esa Yusuf Ali ko‘kaldosh dorug‘a bo‘lgan (1506).

Sh.A.T.ning nomi N. “M.”idagi bir maktubda uchraydi. Maktub Badiuzzamon mirzoga yozilgan bo‘lib, unda N. mirzo b-n ko‘rishish ishtiyoqida ekanligini izhor qiladi va “bu haqda Shayx Alibek va Husayn Alibekka aytgan edim, ular sizga yetkazgan bo‘lsa kerak”, deb yozadi. Bu so‘zlardan Sh.A.T.ning o‘sha paytda N. huzuriga kelib ketgani ma’lum bo‘ladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Муншаот. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Хондамир. Буюклик хислати. – Т., 2011; Навоий замондошлари ҳотирасида. – Т., 1985.*

Q.E.

SHAYX BAHLULBEK (t. va v.e.y.n.) – davlat arbobi, shoir, tabib. N.ning ota bir, ona boshqa akasi. Bir muddat Xorazmda hokimlik qilgan. Iste’foga chiqqach, N.ning xo‘jalik ishlarini boshqargan. Darvesh Ali kabi u ham tabobatga qiziqqan. Ta’bi nazmi ham bo‘lib, muammolar yozib turgan. Lekin badiiy ijod b-n jiddiy shug‘ullanmagan. “M.N.”da “tabibsheva, tolibi ilm yigitdir” deb, bir muammosini misol tariqasida keltiriladi:

Bahri may, soqiy, chu doram intizor,
Be labi o‘ mondaam andar xumor.

Sh.B.ning Amir Kamoliddin Sulton Husayn degan o‘g‘li, uning Mir Ibrohim degan farzandi bo‘lib, ikkalasi ham she’r yozgan. N. Mir Ibrohimni farzand qilib olib, o‘zi tarbiyalagan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Абдуқодиров А. Амир Алишер Навоий. – Хўжанд, 2013.*

E.O.

SHAYX BAHOUDDIN UMAR (t.y.n. – Hirot – 1470/71) – mashhur shayxlardan. Shohrux Mirzo zamonida Sa’duddin Koshg‘ariy, Shamsuddin Muhammad Asad, Xoja Zaynuddin Jomiy kabi ulug‘ shayxlar b-n birga haj ziyoratiga borgan. Hirotda Iydgoh shimolida dafn etilgan. Abulqosim Bobur uning mozori ustiga hashamatli maqbara qurdirgan. N. “M.N.” tazkirasida Hofiz Ali Jomiyning Sh.B.U. qabristonida dafn etilganligi haqida ma’lumot beradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

E.O.

SHAYX BISTOMIY – N.ning “L.T.” dostonida tasvirlangan hikoyatning bosh qahramoni. Hikoyatda Sh.B. hayotiga bir lavha keltirilgan. Unda hikoya qilinishicha, Sh.B. olamdan o‘tgach, uning bir muridi shayxni tushida ko‘radi va undan ahvol so‘raydi. Shayx maloiklarga so‘roq bergani va so‘roq vaqtida ulardan Alloh meni “qulim” deb qabul qildimi, deb so‘raganini, ijobiy javob olgach, o‘sha qabul sizlarga javob, deb aytganini ta’kidlaydi.

Hikoyatda butun umrini Alloh rizosi yo‘liga sidqidildan aziyat chekish b-n o‘tkazgan insongina uning “lutfi”ga sazovor bo‘ladi, degan g‘oya ilgari surilgan. Bunday mazmundagi hikoyat Attorning “Mantiq ut-tayr” asarida ham bor.

Ma’lumki, Sh.B. (874–961) tarixiy shaxs bo‘lib, tasavvuf adabiyotining yirik vakilidir. Asli ismi Tayfur binni Iso binni Odam. Shayx Boyazid Bistomiy nomi b-n mashhur. U Tayfuriya tariqatining asoschisi.

“L.T.”da Sh.B. haqida N. yana bir hikoyat va misol keltirgan. Bundan tashqari, shoir “N.M.” tazkirasida Sh.B.ga maxsus fiqra bag‘ishlagan.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Бертельс Е.Э. Избранные труды. Суфизм и суфийская литература. – М., 1965.*

S.O‘.

SHAYX BUZG‘USH SHEROZIY (taxallusi; to‘liq ismi: Shayx Najibuddin Ali ibni Burg‘-ush Sheroziy (t.y.n. – Sheroz – 1280) – tasavvuf olimi va mutasavvif shoir.

Shomdan Sherozga kelib yashab qolgan boy savdogarning o‘g‘li bo‘lib, otasining tushiga Hazrat Ali kirib, najib va solih farzand ko‘rishini bashorat qiladi. Shuning sharafiga o‘g‘li tug‘ilganda ismini Ali qo‘yadi, laqabi – Najibuddin. Badavlat oiladan bo‘lishiga qaramay, faqirona turmush tarzini odat qilib, jundan tikilgan chakmon kiyar, oddiygina yeb-ichar edi. Shayx Shahobiddin Suhravardiyni tush ko‘rib, Shayx Ibrohimning tavsiyasi b-n mashhur tariqat piri xizmatiga boradi va uning qo‘lidan xirqa kiyadi. Shayxning ijozati b-n Sherozga qaytib, xonaqoh ochadi va murid tarbiyasiga mashg‘ul bo‘ladi. Holi va karomatlari xalq orasida mashhur. Suhravardiyga ergashib yozgan go‘zal she’rlari va yetuk risolalari mavjud. Shuning u-n ham N. “N.M.” tazkirasida u haqda ma’lumot berar ekan: “Shayx so‘zining isi alardin kelur, – deb yozadi. – Bir kun anga dedilarki, tavhid sirrin bir misol bila ravshan qil! Dedi: ikki ko‘zgu va bir olma. Asr fuzalosidin biri hozir erdi, bu ma’noni nazm qildi:

Shayxi komil Najibuddin – piri suxun,
In harfi nav ovarda ba sahroi sukun.
Gufto, ki zi vahdat ar misole xohi,
Sebevu du oina tasavvur mekun.

Tarj.: So‘z olamining piri bo‘lgan komil Shayx Najibuddin sukunat sahrosiga o‘zining yangi hikmati bilan fayz bag‘ishladi: agarda vahdatdan misol tilasang, bir olma-yu ikki oynani tasavvur qil!

“N.M.”da keltirilishicha: “Bir kun dedi: ma’shuqning xolin payvasta ta’rif qilurlar, bu ajabki, anda xud xol yo‘qdur. Ham ul fozil hozir erdi, bu ma’noni ham nazm qildi”.

Bir yorki, chiroyda yo‘q timsoli uning,
Dilki, xolidan ayru emas holi uning.
Men madh etaman yuzidagi xolini-ey,
Holbuki, yuzida yo‘q emish xoli uning.

N. shuning u-n ham uni “Olim erdi va orif, sarchashmayi ulumu maorif”, – deb ta’rif etadi.

Ad.: *Абдураҳмон Жомий. Нафаҳот ул-унс мин ҳазарот-ил-қудс. – Д., 2013; Алишер Навоий. ТАТ. 10-жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Донишмандлар туҳфаси. – Т., 2009.*

E.O.

SHAYX ZIYORATGOHIY (to‘liq ismi Nuriddin Abdurahmon Shayx Shoh Ziyoratgohiy) (t. va v.e.y.n. − Hirot) − tariqat shayxi, tasavvuf olimi. “N.M.”da ma’lumot berilishicha, u Faroxda tug‘ilgan. Kichik yoshda otasi uni ziyoratgohga olib kelib, o‘zining muridi Mavlono Kalon tarbiyasiga topshiradi. Balog‘at yoshigacha Mavlono Kalonning huzurida tahsil olib, keyin ziyoratgohdagi eski madrasada zohiriy ilmlarni takmil qiladi. So‘ngra shaharga kelib, suluk b-n mashg‘ullik qiladi. Tabiati zuhdga moyil bo‘lganidan g‘ayb fayz-u irshodi b-n sarafroz bo‘ladi va ziyoratga qaytib, otameros uyida sokin turadi. Xalqdan uziladi. Nafaqat amaldor va e’tiborli kishilar, hatto shoh-u shahzodalar ham ziyoratiga borsalar eshigini qoqmas edilar, bir chetda kutib o‘tirar, biror kishi uydan chiqsa, xabar berar edi. Shayxning o‘zi xohlamaguncha birov kirmasdi. Suhbatiga musharraf bo‘lganlar haybatidan so‘z ayta olmas edilar. So‘zlari ta’sirli hamda shoh-u gadogacha pand-u nasihat bir xil edi. “Va bu faqir bila ko‘p iltifoti bor edi. Ko‘p qatla xayr duosi qilib erdi. Umid ulki, mustajob bo‘lmish bo‘lg‘ay. Yoshlari yetmish ikkiga yetganda ziyoratgohda dunyodan o‘ttilar. Va Hirot shahrida Shayx Bahouddin Umar (q.s.) hazirasig‘a naql qildilar”, – deb tugatiladi u haqdagi fiqra.

Sh.Z.ning avlod-ajdodlari ikki yuz yil davomida Hirotning Ziyoratgoh qasabasida imom-xatiblik qilib kelgan. U ham ota-bobolari ishini davom ettirgan. Uni “Jomeyi jadid” (Yangi jome) dagi vazifasidan olib tashlaganlarida taniqli

shayx Muhammad Tabodgoniy Amir Shayx Ahmad (Suhayliy)ga maxsus maktub yozib, Sh.Z.ni qattiq turib himoya qiladi, uning olim va fozil, taqvodor va solih kishi, zohid va obidlar sarasi, ikki haram hojisi ekanligini ta'kidlab, bu ishdan N.ni xabardor etishi va uning sa'y-harakati b-n haq joyida qaror topishini so'raydi. "Soqiynoma"da:

Yana bir dard-u g'amim ogohi,
Hamdamim, yor Ziyoratgohiy, –

deb yozishidan uning N.ga yaqinligini ko'rsatadi. Voqean, "M.Q."ning "Qanoat zikrida" deb nomlangan 4-bobida keltirilgan hikoyatga ko'ra, ilohiy sirlar kashshofi bo'lgan Sh.Z. qanoat yo'lini tutib, odamlarning nazr va hadyasi, shoh-u amaldorlarning in'om-ehsonlarini qabul qilmagan. O'z hovli-joyida dehqonchilik va bog'bonchilik b-n shug'ullanib, taqvo-toatni kanda qilmasdi. Natijada, Hirot shoh-u amaldorlari, shayx-u ulamolari uning ziyoratiga borib, halol mehnat b-n yetishtirgan non yoki dasturxonidan biror ne'mat qo'llariga tushsa, ko'zlariga surtib, qo'yinlariga solib, tabarruk deb ahli ayollariga olib kelardilar va ulardan yeganlar oxiratda najot topishdan umidvor bo'lar edilar.

"Qanoat natijasi mundin komilroq oz zuhur qilib erkin va xursandlig' bog'chasining rayohini mundin tarovatliroq kam ochilib erkin, – deb xulosa qiladi shoir va quyidagi qit'ani keltiradi:

Jahon ichra ko'p sur' ko'rguzdi Sone',
Emasdur kishi turfa andoqki qone'.
Kishidin talabsiz g'ino hosil etmak,
Yana judg'a bo'lmamoq hech mone'.

Ad.: *Алишер Навоий. Соқийнома. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ҳолоти Саид Ҳасан Ардашер. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

M.A.

SHAYX NAJMIDDINI KUBRONING SO'ZI VA ITGA TUSHGAN KO'ZI – "L.T." dostonidan o'rin olgan hikoyat:

Shayx Najmiddin Kubro – qutbi dahr,
Bir nazardin kimgakim yetkursa bahr.

Yorubon nuri viloyatdin ko'zi,
O'zlugidin oyrilur erdi o'zi.

Bu sifatda yetti ul yerga ishi,
Kim vali bo'ldi ko'zi tushkan kishi.

Sukr vaqti soldi chun bir kun nazar,
Ul nazardin bo'ldi bir it bahravar.

Oshnolig'din yetishti choshni,
Tortib itlik siyratidin boshni.

Yuz qo'yub shayx ollida qildi niyoz,
Barcha itlar uzra bo'ldi sarfaroz.

Har qayon shahr ichra qilsa erdi mayl,
Itlar erdi girdida andoqki xayl,

Qayda o'ltursa edi itlarga shoh,
Halqa erdi davrida xayl-u sipoh.

Chun qazodin boshig'a yetti ajal,
Shayx eshiginda qozibon bir mahal –

Dafn etib qabrin namudor ettilar,
Qabrin insondek padidor ettilar.

Aylab itlar motamida ko'p fig'on,
Qabrining davrida tuttilar makon.

Yuz qo'yub qabrig'a holo – ahli roz,
Ko'rguzurlar sidq yuzidin niyoz.

Bu dam ul Xorazmda mavjud erur.
Kishvarekim hokimi behbud erur.

Bo'lmag'ay olamda mundin turfa so'z,
Kim saodat ahli itga solsa ko'z,

Yetkurur itga natija ul nazar,
Zotig‘a solur kishilikdin asar.

Itgakim yetgay validin tarbiyat,
Qushqa ham tong yo‘q nabidin tarbiyat.

Ne kishilik kim inoyatdin nishon,
Nash’ai nuri valoyatdin nishon.

Qushqa ham bo‘lsa payambar lutfi tush,
Ne ajab bo‘lsa mute’yi barcha qush.

Sobiqan ham qissa o‘tmish bu qabil,
Sidqig‘a As’hobi kahf etti dalil.

Chun inoyat aylasa hayyi mujib,
Itga-yu qushqa ne tong etsa nasib.

“L.T.” dostonida qushlar o‘z hollariga ko‘ra ma’naviy yo‘lboshchi Hudhudga turli-tuman savollar bera boshlashadi. Avvalo, ularni nima sababdan Hudhudning ma’rifat sohibi-yu o‘zlarining haqiqatdan bexabarliklari ajablantiradi. Zero ular zohirda bir-biridan aslo farq etmas, bari bir jinsdadir. Oralaridagi bunday botiniy tafovutni Hudhud tasavvufdagi muhim masalalardan sanalgan nazar b-n bog‘lab izohlaydi. Ya’ni Hudhudga Sulaymon (a.s.)ning ko‘zi tushgan edi. Sulaymon (a.s.) esa Allohning nazari tushib tanlangan, ham rasul, ham ins-u jin, shuningdek, hayvonlar-u qushlarga podshoh etib saylangan nabiy. Hudhuddagi buncha irfon, buncha izzatning boisi esa unga mana shu sultonning nazari tushishidandir. Chunki safo ahlining nazari kimgaki tushsa, uning ichki olamida bir evrilish bo‘lib, muqarrab qullardan biriga aylanadi. U ishq-u irfondan nasiba oladi. Go‘yoki bunday zotlarning nazari tufrog‘ni kimyoga aylantiradi. Shu bois nazarkarda, nazarli kabi e’tiroflarning ruh tarbiyasida muhim o‘rni bor. Aslida imtihon olamida adashib yurgan odamizodning tavbaga kelib, hidoyat yo‘liga tushishining sabablaridan biri nazar. Yoxud bunday muhib qullar nazarkardalik b-n dunyoga keladilar. Shu bois ularning tug‘ilishidanoq g‘ayrioddiylik, erlik sifatlari namoyon bo‘la boshlaydi. Bu hol xalq og‘zaki ijodi hamda mumtoz adabiyotda hamisha e’tiborga olingan va o‘ziga xos tarzda ifodalangan. Valiylarning nazari suhbati va ilmi ma’rifatidan keladigan fayzi barakoti kabi ta’sirlidir. Ularning nazari b-n muridning qalbida haqiqiy ishq jazbasi va irfon zavqi paydo bo‘ladi. Basirat ko‘zi va ruhoniyat eshigi ochiladi. Tazkira va manoqiblarda ko‘pgina valiylarning nazarkardaligi aks ettirilgan bo‘lib, uning samaralaridan kitobxon nazar tushunchasining mazmun-mohiyatini teran anglashga harakat qiladi. Biroq aytish mumkinki, irfoniy adabiyotda hikoyat tarzida, lirikada talmeh san’ati asosida nazar mavzusi shayx Najmiddin Kubro va u kishining nazari tushgan itdagi o‘zgarishlar orqali to‘laqonli yoritishga harakat qilingan. Jumladan, “L.T.”da ham Navoiy o‘sha mashhur voqeani so‘zlab beradi. Avvalo, e’tibor beradigan bo‘lsak, shoir shayxning valiylik martabasidan so‘z ochadi. Ul zotning ma’naviy martabasini *“qutbi dahr”* deya baholaydi. Demak, Kubro hazratlari o‘z davrining qutbi bo‘lgan. *Qutb, qutbi zamon, qutbi dahr*, *qutbul-aqtob* dunyoning Alloh tomonidan saylangan ma’naviy sultonlaridir. Shayx Ibn Arabiy “Futuhot” asarida: “Abdollar yetti kishi bo‘lib, yetti iqlimga joylashadi. Har bir badalga maxsus bir iqlim borki, u shu iqlimning qutbidir. Bu yetti iqlim abdollarining qalblariga nubuvvat haqiqatlari nozil bo‘ladi. Zohir va g‘ayb olami Alloh belgilagan ikki imom tarafidan qo‘riqlanadi. Qutb esa bularning barchasini muhofaza qiladi”, – deydi. Demak, qutb o‘z zamonida qanday voqea ro‘y berishidan hamisha voqif bo‘ladi va Allohning izni ila ma’lum ma’noda bularni boshqaruvchi uning o‘zidir. Shayx Kubro hazratlari ham mana shunday ma’naviy sultonlardan ekanligi shubhasiz. Fikrimizni nafaqat shayx asos solgan o‘ziga xos usul-u arkonga ega kubraviya tariqati hamda irfoniy-badiiy asarlari quvvatlaydi. Balki uning ijtimoiy-siyosiy hayot b-n bog‘liq shonli umr yo‘li ham bunga guvohlik berishi shubhasiz. N.ning turli asarlaridagi valiylar hayoti haqidagi ma’lumotlari

hamda tasavvuf ilmiga oid qarashlari bir-birini to‘ldiradi. M-n, “N.M.”da o‘qiymiz: “…Bir kun ul Hazrat majlisida As’hobi Kahf ahvolining taqriri va tahqiqi o‘tar erdi. Shayx Sa’diddin Hamaviy (q.s.)ki, Hazrat Shayxning as’hobidindur, xotirig‘a o‘ttikim, oyo bu ummatda andoq kishi bo‘lg‘aymukim, suhbati itga asar qilg‘ay? Hazrat Shayx karomot nuri bila ma’lum qildilar va qo‘pub xonaqoh eshigiga borib turdilar. Nogoh bir it yetishdi va quyrug‘in tebratadur erdi. Alarning mubarak nazarlari ul it sori tushdi. Filhol baxshish topib, mutahayyir va bexud bo‘lub, shahrdin yuz evurdi va go‘ristong‘a lutavajjih bo‘ldi va boshin yerga surtar erdi”. Darhaqiqat, ushbu voqea dostonda ham atroflicha izohlanadi. Shayxi Valitaroshning kimgaki nazari tushsa, uning valilik nuridan bahra olib, o‘zlugidan ayrilardi. Tasavvufda “o‘z”, “o‘zlik” kalimalari zid ma’noli istiloh sifatida keladi. Birinchidan, o‘z lafzi orqali nafs ma’nosi bildirilsa, ikkinchidan, nafsni tazkiya etish natijasida erishilgan ruh martabasiga ishora qilinadi, ya’ni tasavvuf o‘zlikni yengib, o‘zlikkka yetish tajribasidir. Nazarkarda kishilar ham nafsini tazkiya etib, valiylik darajasiga ko‘tarilar edi. Bu hikoyatda diqqat qilish lozim bo‘lgan tariqatdagi hol va maqomlar mavjud. Bir kun Shayx sukr holida ekan, nazari itga tushadi. Xo‘sh, sukr qanday hol? Nega u aynan sukr holida ekanligida itga nazari tushdi va bu muborak nazardan itning holi o‘zgardi? Tasavvuf manbalarida sakr (sukr) va sahv holi haqida alohida to‘xtalinadi. Sukr almashib turuvchi hollar, turli shatahotlar aytiladigan lahzalarni bildiradi. Haq oshig‘ining ishq sharobi va mushohada mayini ichgachgina sukr holiga tushishi aytiladi. Tajalliyoti zavqiyaning to‘rtinchi darajasi sukr deyilgan. Ilk zavq totish, ikkinchisi shurb, ya’ni ichishdir, uchinchisi qonmoq bo‘lsa, to‘rtinchisi sukrdir. Bu mastlik, sarxushlik holi qanchalar oshsa, Allohga yaqinlik ham shuncha ziyoda bo‘ladi. Mana shunday jazba holida uning nazarida ham bir yetuklik jamlanib, kimga ko‘zi tushsa, unda boshqa bir ma’naviy hol boshlanadi. Bundan nafaqat odamizod, balki hayvonlar ham ta’sirlanishi eslatilib, bani bashar uyg‘oqlikka chorlanadi. Nafs tarbiyasi eng muhim vazifaligi uqtiriladi.

Nazar tushgan itda oshnolik, yaqinlik hissi jo‘sh uradi va u itlik siyratidan voz kechadi. Shayx oldiga boshini qo‘yib, niyoz etadi. Va barcha itlardan martabada ulug‘ bo‘lib, ularning shohiga aylanadi, qolgan itlar esa uning sipohiylari kabi uning tevaragida halqa qilib o‘tirardilar. Shu o‘rinda yana tazkiradagi ma’lumotlarga murojaat qilsak: “… Debdurlarki, har yon borsa, kelsa erdi, ellik-oltmishqa yaqin it oni erishib, ondin ayrilmaslar erdi va qayda sokin bo‘lsa, tegrasida halqa urub, iliklarin ilik ustiga qo‘yib, un chiqarmaslar erdi za nima emaslar erdi va hurmat bila turarlar erdi. Oqibat ul yaqinda o‘ldi. Ul Hazrat buyurdilarki, oni dafn qildilar va qabri boshida imorate yasadilar”. Dostonda nazarkarda it haqidagi haqiqatlarga yanada oydinlik kiritiladi. Ya’ni bu it kunlardan bir kun ajali yetib vafot etganda shayxning eshigi oldidan qabr qazib, uni dafn etadilar. Valiy nazari b-n boshqa itlarning ma’naviy sultoniga aylangan bu itning qabri odamlarniki kabi aniq, belgili bo‘ldi. Itlar qabr ustida motamdan ko‘p ohu fig‘on qilib, shu yerda manzil makon etadilar. Hozir ham ahli roz – sir ahli bu qabrga yuz qo‘yib, sidqlari yuzasidan niyozmandlig‘ qilishadi. Bu qabr hozir ham hokimi baxtiyor Xorazmda mavjud, der ekan, shoir o‘quvchining diqqatini jamlab, xulosaviy fikrlarini bayon qiladi. Demak, olamda bundan ham ajablanarli, bundan-da qiziqroq hodisot bormi? Ya’ni saodat ahli itga nazar tashlasa va natijada it zotida kishilik xususiyatini namoyon bo‘lsa?! Agarchi itki valiydan tarbiyat topsa, nabiyning qushni tarbiya etishidan ajablanishga hech qanday o‘rin yo‘q. Bu inoyat unga faqat kishilikdan nishon beribgina qolmay, valiylik nuri nash’asidan ham darak bermoqda. Qushga ham payg‘ambar lutf ko‘rsatsa-yu, barcha qushlar unga tobe bo‘lsa ne ajab! Avvallari, ya’ni qadimda ham shunga o‘xshash qissa bor edi. “As’hobi Kahf” qissasi bunga dalil bo‘la oladi. Go‘zal qissalarning uchtasini o‘zida jamlagan Qur’onning 110

oyatdan iborat 18-surasi Kahfdir. Unda dastlab qalblarini Alloh irodasiga taslim etgan, “As’hobi Kahf” nomini olgan imon sohiblari haqidagi qissa, ikkinchisi kalimulloh Muso va ma’naviy yo‘lboshchi Solih Qul va nihoyat, Zulqarnayn va Ya’juj Ma’juj qissasi keltiriladi. Ushbu qissalar barcha xalqlar orasida mashhurdir. Ularga nafaqat hadisi sharif, tafsir, balki tasavvufga oid ilmiy-irfoniy adabiyot, tazkira va manoqiblarda ham e’tibor qaratildi. Qissalardagi voqealar xalq og‘zaki ijodi va mumtoz adabiyotda ham o‘zining betakror badiiy ifodasini topdi, tarixiy qahramonlar badiiy obraz va timsollarga aylandi. Mufassirlar “As’hob ul-Kahf” – “G‘or birodarlari” qissasini shunday hikoya qilishadi. Iso (a.s.) zamonlaridan so‘ng Rum davlatlaridan birida Daqyunus nomli zolim podshoh taxtga o‘tiradi. U odamlarni butga sig‘inishga majburlar, amriga bo‘ysunmaganlarni o‘ldirar ekan. Biroq bir necha yigitlar “Allohdan boshqa ilohga sig‘inishni istamay, shaharni tark etishga qaror qiladilar. Yo‘lda bir cho‘ponning iti ham ularga ergashadi. Bundan xabar topgan podshoh askarlari ularning ortidan tushishadi. Yigitlar va it bir g‘orga kirib yashirinishadi. Askarlar esa g‘orga kirishga qo‘rqib, ochlik va tashnalikdan o‘lib ketishadi, deya g‘or og‘zini bekitib qo‘yadilar. Ammo Alloh taolo o‘zining sodiq qullarini asrab, uzoq uyquga cho‘mdiradi. Ular uyg‘onganlaridan oradan uch yuz yil o‘tib ketgan, taxtga ham odil shoh chiqqan edi. Va ular hozirgina uyquga ketgan kabi uyg‘onadilar.

Albatta, qissada Allohning sodiq qullariga lutf-u marhamati, qiyomat kunida hisob-kitob u-n bandalarini qayta tiriltirishi haq ekanligi kabi qator ibratlar bor. Mana shu xulosalardan biri ular b-n saodatga musharraf bo‘lgan itdir. Badiiy adabiyotda “… to‘rtinchilari, yettinchilari, sakkizinchilari” deya e’tirof etilgan bu it bir obrazga aylandi. Mashoyixlar suhbatida nafsning shayton hiylalarini farqlashi, ruhning oliy maqomga ko‘tarilishi ayni haqiqat ekanligi ko‘pincha “As’hobi Kahf” qissasini keltirish orqali ta’kidlangan. Valiylarning suhbati, quvvayi nazarining favqulodda ta’sir kuchini dalillash u-n talmeh san’ati vositasida “As’hobi Kahf” itini xotirlash yetarli bo‘lgan. N. ham ushbu timsoldan mahorat b-n foydalanadi. Va hikoyat so‘ngida shunday xulosaga keladi: “Hayyi mujib – Alloh taolo inoyat aylasa, it ham, qush ham nasiba olishi mumkin, axir buning nimasi ajablanarli?! N. dostonda bir umumiy ma’noga ega so‘zlarni turli o‘rinda turlicha qo‘llaydi. So‘zning sehri N. baytlarida juda chuqur his qilinadi. *“Hayyi mujib*” Allohning sifatlaridan biri – *“Yaratuvchi tirik”* ma’nosini anglatuvchi iboradir. Aslida mazkur hikoyatda ham ma’nan qayta tug‘ilish, abadiy tiriklik masalasi mavjud. Ta’kidlash joizki, hikoyaning doston syujetida tutgan qiymati alohida e’tiborga molik. Hikoyanavis asarning asosiy obrazi barcha qahramonlarning peshvosi Hudhudning ma’rifat sohibi ekanligini asosli dalillaydi. Va u ma’naviy karvonda rahnamo, yo‘lboshchi bo‘lishga eng loyiq, eng haqlidir.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

Z.R.

SHAYX OZARIY TUSIY (Taxallusi; To‘liq ismi: Shayx Jaloliddin Ali Hamza ibn Malik Hoshimiy Bayhaqiy Isfaroiniy Marvaziy (1380−1462, Isfaroyin) − fors-tojik shoiri. Bir muddat Tusda yashagani u-n Tusiy taxallusi b-n shuhrat qozongan. Yoshligida she’r-u shoirlik b-n shug‘ullanib, Shohrux Mirzo saroyining malik ush-shuarosi bo‘lgan va unga bag‘ishlab qasidalar yozgan. Shu yerda Shayx Muhiddin G‘izoliy Tusiyga shogird tushib, uning huzurida hadis va hikmat o‘rganadi. U b-n birga haj safariga chiqib, qaytishda Halabda Shoh Ne’matulloh Valiy muridlari halqasiga qo‘shiladi va ikkinchi marta Ka’ba ziyoratiga boradi. Bir yil Makkada yashab, Ka’ba tarixi va uni ziyorat etish tartiblari haqidagi “Sa’y as-safo” (“Poklikka intilish”) asarini yozgan. O‘ttiz avliyo b-n uchrashib, ularning suhbatini olgan. Makkadan Hijoz yo‘li orqali Hindistonga borib, Dakan hukmdori Ah-

mad shoh Valiy Bahmaniy saroyida katta e'tibor qozonib, bu sulola tarixiga bag'ishlangan "Bahmannoma" masnaviysini yaratadi. Hind hukmdori buning u-n unga bir lak (ellik ming dirham) in'om etadi. Buning minnatdorchiligi u-n shoh oyog'iga bosh urishini talab qilganlarida, u bu in'omdan voz kechadi. Keyin vataniga qaytib, Boysunqur Mirzo saroyida xizmat qiladi. 1436-y.dan xilvatga chekinib, butun boyligini ilm toliblariga bo'lib beradi. U o'z davrining zabardast shoirlaridan bo'lib, qasida va g'azallar devoni 30 ming baytga yaqin. "Bahmannoma", "Imomiya", "Samarot" ("Natijalar"), "Javohir ul-asror" ("Sirlar javohiri"), "Mafotih ul-asror" ("Sirlar kalitlari") kabi masnaviylari ham bor. "Ta'rixi Ka'ba", "Tug'royi Humoyun" ("Muborak tug'ro (belgi)"), "G'aroyib ud-dunyo va ajoyib ul-a'lo" ("Dunyo g'aroyibotlari va samo ajoyibotlari") asarlarini arab tilidan tarjima qilgan.

N. ham "M.N."da Sh.O.T.ning she'rlari o'z davrida shuhrat qozongani, xususan, Hindistonda ko'p ulug'lar va mashoyixlar xizmatiga musharraf bo'lgani, hind eli unga murid va ixlosmand bo'lganliklari haqida ma'lumot beradi. "Tarixi tomm"da yozilishicha: "Ul zot zohiriy ilmlar birla orasta, botiniy ilmlar zevarlari birla pirosta edilar; din-u millat ilmi dalillarining otasi; avliyolik va kashfi haqiqatlari ahkomlari bo'yicha olim; ilohiy ma'rifat chirog'i ul zot mehrobida munavvar; cheksiz ilohiy rahmatlar javohirlari ul zot dili ganjinasida to'plangandir. Ul zot mushkin hidli qalamlar shakarnisoridir. Hazrati Shayxning fasih nutqlari go'yo, sirlar javohiri g'azal devoni, bir necha risolasidir".

O'zR FAShI qo'lyozmalar fondida "Javohir ul-asror" asari nusxasi (inv. № 2263) saqlanadi.

Hoji Avhad Mustavfiy (q) Sh.O.T.vafoti ta'rixiga "Xusrav" so'zini topgan. "Xusrav" abjad hisobida 866–1462 ga teng.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 2. – Душанбе, 1989; Шарафуддин Роқимий. Тарихи томм. (Бобобеков Ҳ. ва Норқулов Н. тарж.). – Т., 1998; Донишмандлар туҳфаси. – Т., 2009; Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар бўстони. – Т., 1981.*

E.O.

SHAYX RAVOSIY (vafoti 1467, Hirot) – temuriylar davrida yashagan tasavvuf arboblaridan. To'liq nomi Shayx Sadruddin Ravosiy. Asli Shug'on degan joydan. Sulton Abusaid mirzo davrida 1464-y.da Hirotga kelgan. Sulton Abusaidning unga ixlosi bo'lgan va tez-tez shayx huzuriga kelib, majlislarida ishtirok etgan. Yoshligidan tasavvufga moyilligi bo'lgan N. ham Sh.R. majlislarida qatnashgan va ular o'rtasida yaqinlik bo'lgan. "Ko'nglumni base sayd qildi" deb yozgan edi N. bu haqda. V.V.Bartold ularning munosabatlarini noto'g'ri tushungan va shoirning Samarqandga surgun qilinishini shu bilan bog'laganki bu fikr asosli emas. N.ning Sh.R. b-n yaqinlashuvi 1460-yy.ning o'rtalarida yuz bergan. Bu N. hayotining eng og'ir davri, ruhan va moddiy jihatdan qiynalgan yillari edi. N. va Sh.R. munosabatlari, ularning N. hayoti va dunyoqarashi, xususan, tasavvufiy qarashlariga ta'siri hali o'rganilmagan. Manbalarning birida aytilishicha, Sh.R. b-n Samarqand ulamosidan Xoja Fazlulloh Abullaysiy o'rtasida do'stona munosabatlar bo'lgan. Demak, N.ning Hirotdan Samarqandga kelib, Xoja Fazlulloh xonaqosida yashashi va undan ta'lim olishi tasodifiy emas va bu Sh.R.ning tavsiyasi b-n bo'lgan deb hisoblashga asos bor.

Sh.R. she'riy ijod b-n ham shug'ullangan. N. uni "M.N."ning ikkinchi majlisiga kiritgan va quyidagi forscha matla'sini keltirgan:

Zihi zi orazat chashmi maro nur,
Hamesha az jamolat chashmi bad dur.

Tarj.: Sening yuzingdan ko'zlarimga nur keladi, jamolingdan hamisha yomon ko'z yiroq bo'lsin.

Sh.R.ni N. o‘zining “N.M.” tazkirasiga ham kiritgan. Unda Sh.R.ning shayx Zaynuddin Xavofiyning xalifalaridan ekanligini, tasavvufiy bilimlardan dars berganligi haqidagi ma’lumotlar keltirilgan. N.ning yozishicha, Sh.R. Hirot shahrida vafot etgan va o‘z yurti Shug‘onda dafn etilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Абдураззоқ Самарқандий. Матлаъ ас-саъадайн мажмаъ ал-баҳрайн. 2-жилд. – Т., 2008.*

Q.E.

SHAYX RO‘ZBEHON BUQLIY (To‘liq ismi: Abu Muhammad b. Abu Nasr Baqliy Faseviy (1129, Faso − 1213, Sheroz) − tasavvuf olimi, mutasavvif shoir. Fors viloyatining Faso shahrida mayda savdogar oilasida dunyoga kelgan. Ajdodlari baqqollik va ko‘kfurushlik b-n shug‘ullanganlari u-n Fasoiy va Baqliy taxalluslari b-n shuhrat qozongan. Yoshligidan Iroq, Kirmon, Hijoz va Shomga safar qiladi. Iskandariyada Shayx Abunajib Suhravardiy b-n uchrashib, Sadriddin Abutohir Ahmad ibn Muhammad Isfahoniy huzurida birgalikda “Sahihi Buxoriy” bo‘yicha tahsil oladi. Faxriddin Maryam va Ali ibn Muhammadlardan badiiy so‘z sirlarini o‘rganadi. Rashididdin Abulhasan Ali Huzurida fiqh ilmini o‘qiydi. Shayx Sirojiddin Mahmudga murid tushib, uning qo‘lidan xirqa kiyadi. Bir muddat Makkada yashagandan so‘ng, Sherozga qaytib, muridlar tarbiyasi b-n mashg‘ul bo‘ladi. N.ning “N.M.” asarida yozishicha, u olimlar sultoni, oriflar hujjati, oshiqlar peshvosi edi. Ellik yil Sherozning Atiq nomli Jome’ masjidida va’z aytgan.

60 dan ortiq risolalar yozgan: “Abhar ul-oshiqin” (“Oshiqlar mayog‘i”), “Minhoj al-solikin” (“Soliklar yo‘li”), “Kashf ul-asror” (“Sirlar kashfi”), “Masolik ul-tavhid” (“Tavhid maslagi”), “Mantiq ul-asror” (“Sirlar mantig‘i”), “Mashrab al-ruh” (“Ruh tabiati”) va boshqalar. Arab va fors-tojik tilida yozgan she’rlari “Devon ul-ma-orif fish-she’r” (“Ma’rifat va she’r kitobi”) kitobida jamlangan.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Ҳомидий Ҳ. Тасаввуф алломалари. – Т., 2004; Шайх Рўзбеҳон Буқлий. Рубоийлар // Донишмандлар туҳфаси. – Т., 2009.*

E.O.

SHAYX SAN’ON – “L.T.” dostonidagi qahramon. Sharq xalqlari adabiyotida, xususan, “Xusrav va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Vomiq va Uzro”, “Yusuf va Zulayho” dostonlaridagi obraz. Adabiyotshunoslikda Sh.S. tarixiy shaxs degan taxminlar ham mavjud. Sh.S. Abdulqodir Giloniy hazratlari davrida yashagan valiy bir zot ekanligi aytiladi. Kunlarning birida zamonning ulug‘ avliyolari Abdulqodir Giloniyning nasihatlarini tinglab o‘tirishganda, Sarvari koinot (s.a.v.)ning ruhoniyati zohir bo‘ldi va: “Ayting, ey Abdulqodir; Sening oyoqlaring barcha azizlarning yelkasida!” Abdulqodir Giloniy hazratlari Muhammad (s.a.v.) payg‘ambarimizning bu so‘zlarini yig‘ilganlarga so‘zma-so‘z keltiradilar. Hammalari buni qabul qildilar va “oyoqlaringiz bizning yelkamiz va boshimizdadir”, dedilar. Darhaqiqat, o‘sha paytda hozir bo‘lmagan ko‘p avliyolar ruhan xabardor bo‘lib, Abdulqodir Giloniyning ulug‘ligini “boshimiz va ko‘zimiz ustiga” deya qabul qilganlar. Biroq Bag‘dod yaqinida bo‘lgan mashhur Sh.S. “Men ham u kabi ulug‘man”, – deb ta’zim qilmasligini aytadi. Aynan o‘sha paytda Abdulqodir Giloniy hazratlarining ma’naviyati namoyon bo‘lib, “Agar menga ta’zim qilmasang, cho‘chqaning oyog‘i yelkangda bo‘lsin, kofir qiziga ta’zim qil”, – deb duo qiladi.

Shayx San’on tarixi bo‘yicha maxsus tadqiqot olib borgan Ozarbayjon olimi Zohid Akbarovning yozishicha, “Shayx San’on (Ibn Saqqo) afsonaviy emas, balki XI–XII asrlarda yashagan tarixiy bir shaxs bo‘lib, uning boshidan kechgan sarguzashtlar ma’lum bir o‘zgarishlarga uchragan, u to‘g‘risida sekin-asta dostonlar ham yara-

tilib, og‘izdan og‘izga ko‘chgan, tasavvuf g‘oyalarini ifodalash uchun tariqat adabiyotiga ko‘chirilgan, nomiga maqbara, qabrlar nisbat berilgan, keyinchalik folklor rivoyatlari uning g‘oyaviy o‘rnini qorishtirib yuborgan”.

Husayn Jovid “Shayx San’on fojiasi” asarida Sh.S.ni hijriy IV asr oxiri va V asr boshida yashagan din olimi, keyinchalik Rum (Vizantiya)ga ketib qolgan Ibn Saqqo shaxsiyati b-n bog‘laydi.

Abdurahmon Jomiy “Nafahot ul-uns” tazkirasida Sh.S. – Ibn Saqqo ulug‘ avliyo – G‘avsni ikki do‘sti b-n bahs boylashib sinaganligi bois uning duoibadiga qolganligi haqidagi ma’lumotlarni keltiradi. N. ham Abdurahmon Jomiy tazkirasi asosida Sh.S. haqida ilk bor “N.M.” asarida maxsus to‘xtaladi. Shayxni shunday ta’riflaydi: “Ishq va muhabbat bahrining gavhari va shavq-u malomat otashkadasining samandari erkandur va Shayx Nozim (q.s.) aning bobida mundoq debdurki.

Masnaviy: “O‘z davrida yashagan Shayx San’onning fazilati haqida har qancha yozsam oz. U kamolga yetgan to‘rt yuzta muridi bilan Haramda ellik yil yashadi”.

G‘azzoliyning Sh.S. ishqiga bag‘ishlangan “Tuffat ul-muluk” asari bo‘lsa-da, Sh.S. afsonasining Sharqda keng tarqalishida Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” dostoni muhim rol o‘ynagan. Uning ta’sirida Gulshahriy va N. asarlar yozishdi. Bu dostonga javob sifatida N. “L.T.” asarini yozgan. Dostonda Sh.S. haqidagi hikoyaga maxsus o‘rin berilgan, Sh.S.ning harami sharifda sirlar mahrami, imom va katta din olimi bo‘la turib, xristian qizini sevib qolishi, Ka’bani tark etib, ko‘p yil Rumda qolib ketishi, sevgan qizining xohishiga ko‘ra islom dinidan kechib, xristianlikni qabul qilishi, Qur’onni yondirishi, beliga zunnor bog‘lashi, may ichib, cho‘chqa boqishi sabab-oqibatlari teran ochilgan. N. ijodidagi Sh.S. obrazi qazoyi qadarga taslimiyat, duoning mo‘min hayotidagi ahamiyati, nafs tazkiyasida ishqning o‘rni kabi qator masalalarga oydinlik kiritadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ҳусайн Жовид. Шайх Санъон фожиаси. – Боку, 1977.*

Z.R.

“SHAYX SAN’ON HIKOYATI” – N.ning “L.T.” dostonidagi yirik hikoyatlardan biri. Hajmiga ko‘ra (515 bayt) uni doston ichidagi doston yoki qissa deb atash ham mumkin. Mazkur hikoyatda N. Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” dostonidagi mashhur Shayx San’onning o‘z davri, muhiti u-n g‘oyat g‘ayritabiiy bo‘lgan ishqiy sarguzashtlari b-n bog‘liq qissani, syujetini, g‘oyasini to‘la saqlagan holda turkiy tilda yangidan hikoya qilib, tasvirlab bergan.

Islom olamining markazi – Ka’bada imomlik qilgan, yoshi esa bir yerga yetgan Shayx San’onning tushiga kunlarning birida Rum (Vizantiya) mamlakati kiradi. Shayx unda o‘zini mast-alast, nasroniy diniga o‘tgan holatda ko‘radi. Uyg‘onib qayta uxlasa, yana o‘sha tush. Shayx Rumga safar qilishga qaror qiladi. To‘rt yuz muridi uni kuzatib boradi. Shayx u yerda nasroniy dinidagi go‘zal bir qizni ko‘rib o‘zini yo‘qotar darajada unga oshiq bo‘lib qoladi. Uning ko‘z oldini qorong‘ilik bosib, o‘zini ulkan bir baxtsizlik domida sezar ekan, N. shayx nomidan deydi:

Bilmon, oyo, tun balosinmu deyin?
Manga tushgan kun balosinmu deyin?

Bu bayt N.ning “N.Sh.” devonidan:

Qoshi yosinmu deyin, ko‘zi qarosinmu deyin?
Ko‘ngluma har birining dardu balosinmu deyin?

kabi baytlarini xotirga keltiradi. Ya’ni dostonda shayx San’onning ishqiy kechinmalari, hijron azoblari chuqur lirizm bilan ifodalangan. San’on yaxshi ko‘rib qolgan rumlik qiz boy xonadondan bo‘lib, shayxning ustidan xohlagancha kuladi, masxara qiladi:

...Shayxliq tavrida oting yo‘qmudur?
Oq soqolingga uyoting yo‘qmudur?

Chun sanga to‘qsonu yuzga yetti yosh,
Ham qari demak bo‘lur, ham seni yosh.

Yosh esang, kirmaydurur aqling hanuz,
Qarig‘on degay xarifliqtin bu so‘z...

Lekin San’on o‘z muhabbatidan, o‘z sevgilisi visoliga erishish niyatidan qaytmaydi. Shunda qiz chin yurakdan bo‘lmasa ham, San’onni sinab ko‘rish, yupatish ma’nosida bir necha shart qo‘yadi. Bu shartlar San’on u-n nihoyatda og‘ir bo‘lib, u qizning visoliga yetishish u-n o‘z dinidan voz kechishi, nasroniylikni qabul qilishi, Qur’onni kuydirishi, may ichib mast bo‘lib, beliga nasroniylik dini belgisi – zunnor bog‘lashi kerak edi:

May ichib, zunnor olib, bo‘lg‘onda mast,
Kuydurub mushafni, bo‘lmoq butparast.

Buning ustiga yana bir yil cho‘chqa boqib, otashgohda o‘t yoqishi lozim edi. Kutilmaganda San’on bu shartlarning hammasini qabul qiladi. Shogirdlari esa hang-mang. Hech qanday yalinish-yolvorish, nasihat shayxni yo‘ldan qaytara olmaydi. Attor singari N. ham buni oshiqlikning haqiqiy ko‘rinishi deb baholaydi. Hikoya oxirida garchi San’on o‘z muridlari duosi b-n o‘z diniga qaytsa ham, qiz tushida Iso payg‘ambarni ko‘rib, uning gapi b-n San’onni chindan yaxshi ko‘rib, uning orqasidan Ka’baga borsa ham, San’on va uning sevgilisi – nasroniy qizi muhabbatlari fojia b-n tugasa ham, unda haqiqiy ishqning buyukligi, murakkabligini tasvirlash birinchi o‘ringa qo‘yilgan.

N. mazkur hikoyada Attorning xalqchil, sodda tasvir uslubini saqlashga, ta’sirchan badiiy bo‘yoqlardan mo‘l-ko‘l va yaxshi foydalanishga intilgan va bunga muvaffaq bo‘lgan. Qissa oxirida N. o‘zi bilan shayx San’on obrazi o‘rtasida katta yaqinlik ko‘radi, o‘zi ham ishq iztiroblarini undan kam tortmaganini, vaqti kelsa, bu haqda maxsus asar yozajagini aytadi:

Shayxni andoqki, shaydo etti ishq,
Olam ahli ichra rasvo etti ishq.

So‘ngra mendin solmadi g‘avg‘osini,
Kimsa ko‘ngli mulkiga yag‘mosini.

Holim andin kimsa gar ortuq demas,
Ortuq ermas bo‘lsa ham, o‘ksuk emas.

Kel, Navoiy, so‘zni holo xatm qil,
Ishq aro izhori da’vo qilmag‘il.

Bir necha kun umrdin tobsam omon,
Sharhi ishqim nazm etay bir doston.

Anda bilgay kimgakim insofdur,
Kim so‘zum chinmu durur yo lofdur.

Lekin N.ning o‘z muhabbati haqida alohida asar yozgani bizga ma’lum emas. Shayx San’on haqidagi an’anaviy qissani ommalashtirishga N. ham o‘zining muhim ulushini qo‘shdi. Ba’zi hollarda “L.T.”dagi Shayx San’on hikoyasining maxsus ko‘chirilgan, kitob qilingan hollari ham bo‘lgan. Mazkur qissa hozir ham katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Ad.: *Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

E.O., Z.R., S.O‘.

SHAYX UL-ISLOM – 1. Qari, keksa; 2. Oliy diniy rutba. Musulmon davlatlarida din va shariat b-n bog‘liq barcha masalalarni hal etish Sh. ixtiyorida bo‘lgan. Bundan tashqari Sh.lar hukmdorlar b-n ham doimiy muloqotda bo‘lib, davlat, xalq hayotiga oid muhim qarorlarni qabul qilishda ham ishtirok etganlar. Bu mansabga din va shariat sohasida ulkan bilimlarga ega bo‘lgan va diniy olim sifatida e’tirof etilgan, ikkinchi tomondan, o‘zining taqvodorligi, pokligi va boshqa fazilatlari b-n xalqning, musulmonlar

jamaosining hurmatiga sazovor bo‘lgan kishilar tomonidan munosib ko‘rilgan va tayinlangan.

Muayyan tabaqalar va kasb-egalari ahvolotidan bahs etuvchi “M.Q.” asarining 11-fasli Sh. ga bag‘ishlangan. Asarda ta’kidlanishicha, Sh. musulmonlar peshvosidir. Sh.lik talabiga ko‘ra, u islompanoh olim, oliy dargohga yaqin orif, donishmand shariatparvar, faqirlarga xursandchilik yetkazuvchi va tariqatni mahkam tutgan bo‘lishi lozim. N., shuningdek, Sh.ning yaxshi-yomonga shafqatining fayzi birdek yetishi va katta-yu kichik hidoyatidan so‘zsiz naf’ olishi lozimligi, eng muhimi, shariat qonunlari ijrosida qat’iyatli, xususan, bid’atchi, dinda yangilik yaratishga intiluvchilarga murosasiz bo‘lishi shartligin yozadi. Fasl so‘ngida kelgan bayt Sh. haqidagi fikr-mulohazalarni yakunlovchi, yanada teran anglatuvchi mazmunga egadir, ya’ni yuqorida aytilgan sifatlarga sohib Sh. Boriy taoloning ham yaqini darajasiga erishgan Sh. piri Ansoriy kabidir:

Mundin o‘ldi muqarrabi Boriy,
Shayx ul-islom piri Ansoriy.

Movarounnahr va Xuroson tarixida Sh.likning bitta xonadon vakillari qo‘lida bo‘lgani, ya’ni avloddan avlodga o‘tgani ham ko‘riladi. Samarqand Sh.lari ham shunday bo‘lgan. Muhammad Solih “Shayboniynoma”da ular haqida shunday yozadi:

To‘rt yuz yil ekandur davri ayyom,
Ki alar ekandurlar shayxulislom.

Abuka birla otasi mashhur,
Otlari barcha kitobda mastur.

Hirotda esa Taftazoniylar xonadoni vakillari uzoq asrlar davomida ushbu mansabni egallab kelganlar. N. davrida ham shulardan biri – Sayfiddin Ahmad Taftazoniy shayxulislomi edi. U katta olim bo‘lib, ko‘p asarlar yozgan va “Sharhi faroiz” asarini N.ga bag‘ishlagan.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Эргашев Қ. Некоторые аспекты государственной деятельности Алишера Навои. – Т., 2009; Мухаммад Ҳайдар. Тарихи Рашидий. – Т., 2008.*

Q.E.

SHAYXIY (XV asr) – musiqashunos, sozanda, bastakor, shoir. Asli Tabasdan bo‘lgan, ancha muddat Iroqda yashagan. U yerda musiqa nazariyasini o‘rganib, bir necha asarlar ham yaratgan. N. “M.N.”da Sh.ning Tabasda ham shayx, ham vaqf yerlarini boshqaruvchisi bo‘lib ishlagani haqida ma’lumot beradi va she’rlaridan bir matla’ keltiradi.

“M.N.” tazkirasini fors tiliga tarjima qilgan Muhammad Qazviniy o‘zidan ilova qilib, Sh. ning N. vafotidan keyin Makkaga borgani va Arab mamlakatlarida musiqa sohasida nihoyatda shuhrat qozonganini yozadi. Uning 2 shogirdi bo‘lib, ular jo‘rlikda Sh.ning musiqiy tasniflarini mahorat b-n kuylashgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

S.G‘.

SHAYXZODA ANSORIY (XV asr, Hirot) – shoir. Shoirlar xonadonidan bo‘lib, otasi Shayx Abdulloh ham shoir bo‘lgan. Onasi ham Bediliy taxallusi b-n she’rlar yozib, shaharda tanilgan. N. ning “M.N.” tazkirasida ma’lumot berilishicha: “Kichik yoshidin tahsilg‘a mashg‘uldur va muammo fanida ko‘p muloyimat andin zohir bo‘lur ham ayturida, ham ocharidakim, ulug‘roq elga mahalli taajjubdur”. Ijodidan namuna siafatida “sod” ismiga yozgan bir muammosi keltiriladi:

Novak az mujgon chi andozi ba qasdi joni man,
Bar hazar bosh az sirishki chashmi xunafshoni man.

Tarj.: Mening jonim qasdiga muncha kiprik o‘qini otasan – qonli ko‘zimning yoshidan qo‘rqmaysanmi?

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

E.O.

SHAYXZODA MAQSUD (1908, Ganja (Ozarbayjon) – 1967, Toshkent) – shoir, dramaturg, adabiyotshunos, tarjimon. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi (1964). Bokudagi dorilmualliminni tugatgan (1925). 1928-y.da O‘rta Osiyo Sharq fakultetida tahsil olgan. “Sharq haqiqati” (1929–32), “Qizil O‘zbekiston” (1932) gazetalari, “Guliston” jurnalida (19933–34) ishlagan. Fan qo‘mitasi huzuridagi aspiranturaga o‘qishga kirgan (1934), ayni paytda Til va adabiyot institutida ilmiy xodim bo‘lib ishlagan (1935–38). 1938 y.dan umrining oxirigacha Nizomiy nomidagi Toshkent pedagogika instituti (hozirgi TDPU)da o‘zbek adabiyoti tarixidan dars bergan. “Yangi devon” (1937), “Kurash nechun?” (1942), “Chorak asr devoni” (1958), “Xiyobon” (1968) kabi she’riy kitoblari, “Jaloliddin Manguberdi” (1944), “Mirzo Ulug‘bek” (1961) fojialari muallifi.

Sh.M. zabardast n.shunoslardan hisoblanadi. Adabiyotshunos sifatida u bir umr shoir ijodini tadqiq etib keldi. Uning N. haqidagi “Klassik adabiyotimizning ulug‘ siymosi” nomli ilk maqolasi 1938-y.da “O‘qituvchilar gazetasi”da bosilgan. Unda ulug‘ shoirning o‘zbek adabiy tili va adabiyotining mustahkam poydevorini qo‘ygani, o‘zining boy va rang-barang adabiy merosi b-n o‘zbek tilining ham badiiy ijod u-n yaroqliligini isbotlagani, ijodining xalqchil va insonparvarlik negiziga asosiy urg‘u beradi. N. bo‘yicha yaratilayotgan hozirgi tadqiqotlar yaqin kelajakda fanning n.shunoslik sohasi poydevorini qo‘yishi haqidagi fikrni ilgari suradi.

1940-y.da yozilgan “Ilm-u ma’rifatning jo‘shqin kuychisi” nomli maqolasida “Hayrat ul-abror” va “Mahbub ul-qulub” asarlari misolida ilm-u ma’rifatning ahamiyati, ustoz-shogirdlik munosabatlari xususida fikr yuritadi.

“Navoiy va Bobur” (1940), “Navoiy ijodida folklor motivlari”, “Navoiyda adl-u insof masalasi” maqolalari (1941) “Qizil O‘zbekiston”, “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetalarida bosilgan.

1941-y.da Sh.M.ning “Gumanist shoir” risolasi chop etiladi. U 9 qismdan iborat: 1) Navoiyning siyosiy qarashlari; 2) Navoiyda gumanizm; 3) Navoiy ijodida ayol obrazi; 4) “Xamsa”da muhabbat muammosi; 5) Navoiy – o‘z davrining eng madaniy kishisi; 6) Navoiy ilmparvar; 7) Navoiyda vatanparvarlik va internatsionalizm; 8) Navoiy va yoshlik; 9) Navoiy va zamonamiz.

Sh.M. 40-yy. oxirida N. ijodi b-n qizg‘in shug‘ullanadi. “Yuksak g‘oyalar va chuqur tuyg‘ular kuychisi”, “Navoiyning Samarqandda kechirgan kunlari”, “Hayrat ul-abror” haqida”, “O‘lmas oshnalar”, “Navoiyning lirik qahramoni” maqolalari shular jumlasidandir.

U “H.A.”da 3 masala asar markaziga qo‘yilgan va 20 maqolat ularni yoritishga qaratilgan deydi: inson va uluhiyat, inson va jamiyat, inson va uning o‘zligi.

“Navoiyning lirik qahramoni haqida (“G‘aroyib us-sig‘ar” bo‘yicha) maqolasida shoir she’rlarining mavzu ko‘lami va obrazlar olamini tekshiradi. “X.M.” – XV asrning nazmiy qomusi, deb lutf etadi. Voqean, shoir to‘rt devonining umumiy nomi “Xazoyin ul-maoniy” ekanligiga ham u birinchi bo‘lib e’tibor qaratgan edi.

“Alisher Navoiy lirikasining ba’zi bir poetik usullari haqida” (1959), “Ustodning san’atxonasida” (1966) turkum maqolalari N. g‘azallarining badiiyati va shoir mahorati qirralarini ochib berishga qaratilgan. N. g‘azallarining har tomonlama keng va teran tahlili hamda birlamchi adabiy manbalar, xususan, Sharq poetikasidagi uchlik – ilmi aruz, asli bade’ va ilmi qofiya qoidalariga tayangan holda Sh.M. ulug‘ shoir ijodiy laboratoriyasiga chuqur kirib boradi. N. g‘azallarining mavzuiy tasnifiga bag‘ishlangan oxirgi maqolasi – “G‘azal mulkining sultoni” orqali shoirga bergan ushbu ta’rifi ommalashib ketgan.

Taniqli adabiyotshunos olim N.Mallayev tomonidan to‘plab nashrga tayyorlangan Sh.M.

ning N. haqidagi tadqiqotlari uning 6 jildli “Asarlar” to‘plami 4-jildini tashkil etadi (1972). Ulug‘ shoir haqidagi bu rang-barang ilmiy ishlari Sh.M.ning n.shunoslik taraqqiyoti va tarixida o‘ziga xos o‘rni borligini ko‘rsatadi.

Ad.: *Шайхзода М. Ғазал мулкининг султони. Асарлар, 6-жилдлик, 4-жилд. – Т., 1972; Ғаниева С. Мақсуд Шайхзода – навоийшунос // Ўзбек тили ва адабиёти, 2010, № 1; Каримов Н. Шайхзода // ЎзМЭ. 9-жилд. – Т., 2005.*

S.G‘., E.O., M.A.

“SHAYXI IROQIY SHOMDA...” – N.ning “H.A.” dostonidagi “Ishq o‘ti ta’rifi”ga bag‘ishlangan (IX maqolat) bobida berilgan hikoyatning sarlavhasi ana shunday so‘zlar b-n boshlanadi. Hikoyat 32 baytdan iborat. Unda tarixiy shaxs – mashhur Shayxi Iroqiy hayotiga oid bir rivoyat keltirilgan. Rivoyatga ko‘ra, umri toat-ibodat va xudojo‘ylikda o‘tayotgan “faxri zamon” Shayxi Iroqiy Misrda bir qancha muddat turib qolgandan keyin Shom (hozirgi Suriya) sari safarga otlanadi. Bu xabar Shom podshohiga ham yetadi. U mashhur shayxning kelishini o‘zi va mamlakati u-n katta sharaf deb bilib, hammani peshvoz chiqishga da’vat etadi. O‘zi ham arkoni b-n shayxni qarshilashga otlanadi. Shom ahli shayxni ko‘rgach, otdan tushib “yo‘liga bosh” qo‘yadilar. Ular orasida:

Lutf-u malohatda jahon ofati,
Dema jahon ofati, jon ofati, –

deya ta’riflangan yosh shahzoda ham bor edi. Shayx uni ko‘rib, hayratga tushadi:

Shayxga tufroq o‘lubon xayl-u shoh,
Lek bo‘lub Shayx anga xoki roh.

Shayx “xirqayi irshod”ini yirta boshlaydi, bu holdan “ulus” lol bo‘ladi. Podshoh va uning o‘g‘li shayxga murid bo‘ladilar.

Hikoyatda chin insoniylik va tabiiy go‘zallik har qanday soxtakorlikdan ustunligi madh etilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Мамадалиева З. Алишер Навоийнинг “Лисон-ут тайр” достонидаги рамзий образлар тизими. – Т., 2016.*

S.O‘.

SHAYXIM SUHAYLIY (taxallusi; to‘liq ismi: Nizomiddin Ahmad Amir Shayxim Suhayliy (1444–1502, Hirot) – davlat arbobi va shoir. Davlatshohning ma’lumot berishicha, ota-bobolari Chig‘atoy ulusining nufuzli kishilaridan bo‘lib, sohibqiron davridan boshlab yuqori mansablarda xizmat qilib kelganlar. Shohrux zamonida ular muhim hukumat vazifalarini bajarganlar. Sh.S. 1469-y.gacha Sulton Abu Saidga mulozim bo‘lgan. So‘ngra Sulton Husayn Boyqaro xizmatiga kirgan. 1472-y.da muhrdor etib tayinlangan. Sh.S. muhrdorlik lavozimiga N.ning tavsiyasi b-n tayinlangan. Keyinchalik amir rutbasini olgan. Sommirzo ham uning kelib chiqishini turkiy qavm b-n bog‘laydi.

Abdurahmon Jomiy va N.ning yaqin do‘stlaridan bo‘lgan Sh.S. Shayx Ahmad Shayx Ozariyning shogirdi bo‘lib, 11 yoshidan she’r yozgan va 12 yoshidan ustozining taklifi b-n o‘ziga Suhayliy (yorug‘ yulduz) taxallusini olgan. Hirot va Samarqandda tahsilini kamolga yetkazib, 20 y. dan ziyod Sulton Husayn Boyqaroning mulozimi va vaziri sifatida faoliyat ko‘rsatgan. Ilmi adab ahliga homiylik qilgan. 1494-y.da Husayn Voiz Koshifiy uning sharafiga o‘zi amalga oshirgan “Kalila va Dimna”ning yangi tarjimasini “Anvori Suhayliy” (“Suhayliy nurlari”) deb atagan. Umrining oxirida saroy xizmatidan ketgan.

N. u b-n yaqin do‘st bo‘lgan va “yori aziz” deb ardoqlagan. “D.F.”da “Tatabbu’yi yori aziz” sarlavhasi b-n kelgan 3 g‘azal Sh.S. g‘azallariga nazira tarzida bitilgan. Davlat ishlari, siyosiy-harbiy vaziyat bilan bog‘liq ravishda yuzaga

kelgan og‘ir, nohush paytlarda N. Sh.S.ga dalda bergan. Jumladan, 1498-y.da Sulton Husayn mirzo isyonchi o‘g‘li Kepak mirzoga qarshi Haydar mirzo va Amir Sh.S. boshchiligida lashkar jo‘natgan. Lekin ular mag‘lubiyatga uchraganlar va Mashhadga kelganlar. O‘sha paytda N. ham Mashhadda edi. N.ning Amir Sh.S.ga va Haydar mirzoga tasalli berib, mehribonchilik ko‘rsatgani xususida manbalarda ma’lumotlar bor: “O‘sha kunlari oliyshon xoqonning hukmi b-n Kepak mirzoga qarshi yuborilgan Haydar Muhammad mirzo va Amir Shayx Ahmad Suhayliy mag‘lubiyatga uchrab, Mashhadga keldilar va Amir Alisher... Mirzo hamda Amir Shayxni ovuntirish uchun ularga yaxshi otlar, nafis parchalar tortiq qilib, yig‘ilishga hozir bo‘lganlarning yuziga lutf-u marhamat eshiklarini ochdi”.

Sh.S. b-n munosabatlari haqida N.ning o‘zi ham to‘xtalib o‘tgan. Bu haqdagi qaydlarni biz “Xam.M.”, “M.N.”, “M.” kabi asarlarda uchratishimiz mumkin. Shoirning “Soqiynoma”sida Sh.S.ga maxsus qism bag‘ishlangan va unga atab haroratli misralar bitilgan:

Soqiyo, jomg‘a quy maydin sel,
Mayi xurshid-u aning jomi Suhayl.

Kim Suhayliy zoridur zor ko‘ngul,
Ki tilar suhbatin afkor ko‘ngul.

N. bu o‘rinda Sh.S.ning shaxsiyatini ham, ijodini ham yuksak baholaydi:

K ey jahon xalqi aro zoti nafis,
Zotingg‘a fazl-u adab ikki anis.

Durri nazming suyi ul nav’ ravon,
Ki oqib suftidin obi hayvon.

Sensen ulkim, yo‘q sen kebi zot,
Naqdi ma’ni bila farxunda sifot.

“M.N.”da do‘stiga yuksak baho berib, shunday yozadi: “Avvaldin oxirg‘acha faqir bila iltifot va ittihodi ko‘p uchun mundin ortuq ta’rifin qililsa, o‘zumni ta’rif qilg‘ondek bo‘lurdin qo‘rqub, ixtisor qilindi” deydi: “Xuroson mulkining mutaayyin elindindurur. Kichik yoshidan tab’ osori va zihin namudori andin ko‘p zohir va hamida axloq va pisandida maosh atvoridin bohir erdi. Sulton Abu Sa’id Mirzo xizmatiga tushub, maxsus mulozim bo‘ldi va ash’ori el orasida shuhrat tutti va holo yigirma yildin ortuqroqdurkim, Sulton Sohibqiron xizmatidadur va rafe’ munosib va a’lomarotibg‘a musharrafdur...”. Shundan keyin “Iydiya” qasidasi va yana 2 forsiy g‘azalining matla’larini namuna sifatida keltiradi. Jumladan:

Dil, chu shikasta makush oshiqi xastaholro,
Sangi sitam chi, mezani murg‘i shikasta bolro.

Tarj.: O‘zi xasta, dili shikasta oshiqni o‘ldirma, qanoti singan qushga sitam toshini otib nima qilasan?

Va “Layli va Majnun” masnaviysida Laylining xastaligi ta’rifida bu bayt aningdurkim:

Go‘yi zanaxash zi hol gashta,
Monandayi sebi sol gashta.

Tarj.: Beholligidan iyagi olmasi go‘yo bulturgi olmaga o‘xshab qolgan edi.

Xondamirning “Xulosat ul-axbor”da ma’lumot berishicha, “Olijanobligi, baland martabaliligi, zehnining sofligi, ta’bining latifligi bilan mashhurdir, doimo fasohatli baytlar va balog‘at asarlik she’rlar yozib turadi. Uning qasidalari, g‘azallari va devoni mashhurdir, masnu’ot va maknunot xalq og‘zida mazkurdir. Yigitligidan to shu kunlargacha olihazrat amir Alisher bilan uning o‘rtasida birodarlik va yaqin suhbatdoshlik munosabatlari mavjud va amir Alisher doimo uning martabasi yuqori bo‘lishi borasida g‘ayrat ko‘rsatib keladilar”.

Sh.S. zullisonayn shoir bo‘lib, forsiy va turkiy devoni mavjud. Turkiy devonining taqdiri noma’lum. Davlatshoh Samarqandiy “Tazkirat ush-shuaro”da uning

Ishqda men komil-u Farhod-u Majnun shuhrati,
Olloh-Olloh, ne kishilarga bu ishning himmati,

matla’li turkiy bir g‘azalini va quyidagi matla’sini keltiradi:

Ey meni jabr-u jafo bobida mu’tod aylagan,
O‘zgalar birla vafo qasrini bunyod aylagan.

Forsiy devoni qasida, g‘azal, qit’a, ruboiy, tarkibband, tarje’band, mustazod va fard kabi janrlardagi she’rlardan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 2500 baytdan ziyod. “Layli va Majnun” dostoni ham mavjud (2065 bayt). Amir Xusrav Dehlaviyning “Daryoi abror” (“Solih kishilar daryosi”), Abdurahmon Jomiyning “Lujjat ul-asror” (“Sirlar daryosi”), N.ning “Tuhfat ul-afkor” (“Fikrlar tuhfasi”) qasidalariga tatabbu’ yozgan. Forsiy va turkiy adabiyot rivojiga munosib hissa qo‘shgan.

An’anaviy mavzularda ijod qilgan: ishq tarannumi, yor vasfi, may ta’rifi, ezgu xulqlar targ‘ibiyu noshoyista illatlar tanqidi, shayx-u zohidlar mazammati, ilm egallash, xulqini poklash, komillik kasb etishga da’vat kabi g‘oyalar she’rlarining asosini tashkil etadi. Favqulodda tashbehlar va dahshatli mubolag‘alarni sevib qo‘llashi, “qo‘rqg‘udek alfoz va maoniy darj” (Bobur) qilishi b-n mashhur edi. U bir kuni Abdurahmon Jomiy huzurida “G‘am tunida ohim girdbodi falakni o‘rnidan qo‘zg‘atdi, ko‘z yoshim ajdahosi yer yuzini yutib yubordi” ma’nosidagi quyidagi baytini o‘qiganida:

Shabi g‘am girdbodi oham az jo burd gardunro,
Furo‘ burd ajdahoyi seli ashkam rub’i maskunro,

U: “Mirzo, siz she’r aytasizmi yo odam qo‘rqitasizmi?” – deb lutf etgan ekan. Bu aslida Jomiyning Sh.S. iste’dodi va mahoratini e’tirof etishi edi.

Sh.S. hozirjavob shoir bo‘lib, ba’zida hajviy she’rlar ham yozgan va ular zamondoshlari orasida mashhur bo‘lib ketgan. Jumladan, “M.N.”da keltirilishicha, Abdurahmon Jomiy haj safariga otlanganida o‘sha zamonning Vaysiy va Sog‘ariy kabi shoirlari ham bu ulug‘ zotga hamroh bo‘lmoqchi bo‘ladilar. Lekin Vaysiy ulovi yo‘qligi, Sog‘ariy esa boshqa bir bahona b-n safardan qoladilar. Sh.S.ning ayni voqea munosabati b-n bir hajviy qit’a yozadi va u butun Hirot ilmiy-adabiy muhitida mashhur bo‘lib ketadi.

Vaysi-yu Sog‘ariy ba azmi Haram,
Gashta budand har dushon safari,
Lek az on roh har du vo mondand,
On yak az be xari-yu in zi xari.

Tarj.: Vaysiy bilan Sog‘ariy – har ikkalasi Ka’ba ziyoratini niyat qilgan edilar. Lekin biri eshagi yo‘qligi, ikkinchi esa eshakligi uchun har ikkalasi ham bu safardan qoldilar.

Sh.S. qasida janrida ham barakali ijod qilgan va Sulton Ahmad mirzo, Husayn Boyqaro, N.larga bag‘ishlab qasidalar bitgan.

Botir Valixo‘jayev u haqda “Shoirning do‘sti” maqolasini (“Sharq yulduzi”, 1968, 1-son) yozgan, Rahim Vohidov hayoti va ijodi bo‘yicha nomzodlik disssertatsiyasini himoya qilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамсат ул-мутаҳаййирин. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Муншаот. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Давлатшоҳ Самарқандий. Тазкират уш-шуаро. – Хўжанд, 2015; Бобурнома. – Т., 2002; Гулшани адаб. Жилд 4. – Душанбе, 1977; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985; Валихўжаев Б. Муттоз сиймолар. – Т., 2002. Воҳидов Р. Суҳайлий. – Т., 1976; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 3. – Душанбе, 2004; Соммирзои Сафавий. Туҳфаи Сомий. – Душанбе, 2018; Гулшани адаб. Жилд 4. – Душанбе, 1977; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 3. – Душанбе, 2004.*

Q.E., E.O.

SHAKL VA MAZMUN – adabiyotshunoslik va san’atshunoslikka oid muhim atama. N.ga ko‘ra, mazmun b-n shakl orasida mustahkam birlik bo‘lishi kerak. Mazmun b-n shaklning birligi, mazmunning shaklga qaraganda ustunligi haqidagi N. ta’limotining chuqur ma’nosi shundan iboratki, ma’no voqelikdir, asosdir. Lekin adabiyotda mazmun o‘ziga muvofiq, yuksak shaklsiz bo‘lsa, jonsizdir, qiziq emasdir. Bunday asar to‘liq qimmatli badiiy asar bo‘la olmaydi.

Voqelikni aks ettirar ekan, borliqning u yoki bu hodisasi haqida so‘zlar ekan, shoir o‘sha voqelikni, borliqni she’riy san’atning butun boyliklaridan, qonun-qoidalaridan, bir so‘z b-n aytganda, badiiy vositalardan foydalanish kerak (m-n, qofiyalar, o‘xshatishlar, mubolag‘alar, kinoyalar, so‘z o‘yinlari va h.k.). Shoir o‘zining aks ettirmoqchi bo‘lgan voqeligini mana shulardan uning o‘ziga muvofiq (Farhodning o‘ziga bir, Xusravga boshqa) libos yasab, uning mana shu libosda xalqqa, o‘quvchiga taqdim etishi kerak. Shu libosi ayrim sharoitlarda uning taqdirini hal eta oladigan darajada muhim ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin. Lekin shakl qanchalik katta rol o‘ynamasin, ma’noning unga nisbatan ustunligi, asosiyligi, hal qiluvchiligi umumiydir, shaklsizdir. Shoir qancha usta bo‘lmasin, uning obyektga kiygizgan libosi qanchalik mohir ishlangan, go‘zal bo‘lmasin, u agar tegishli mazmunga ega bo‘lmasa, o‘quvchida ishonch uyg‘ota olmaydi. Demak, asos ma’nodir, mazmundir. Shakl esa o‘sha asosning muvaffaqiyatini, taqdirini hal etishda yaqindan ishtirok etadigan libosdir, omildir. N.ning shoirdan talabi shuki, muayyan voqelikka uning o‘ziga mos, to‘g‘ri keladigan, qiyofasini, mohiyatini yaqqol ko‘rsatadigan, gavdalantiradigan libos kiydirishi kerak. N. bu haqda “H.A.” dostonida shunday deydi:

Nazmda ham asl anga ma’ni durur,
Bo‘lsun aning surati har ne durur.

Nazmki ma’ni anga marg‘ub emas,
Ahli maoniy qoshida xo‘b emas.

Nazmki ham surat erur xush anga,
Zimnida ma’ni dog‘i dilkash anga.

Yo Rab, ani xalq dilafro‘zi et.
Xasta Navoiyg‘a dog‘i ro‘zi et.

N. mazmunni bir go‘zalning tanasiga o‘xshatadi, shaklni esa o‘sha go‘zalning kiygan kiyimiga, libosiga, unga beriladigan bezakka qiyos etadi:

Lafz libosin tikibon rang-rang,
Kiymak uchun ul sanami sho‘x-u shang...

N. mazmun b-n shakl orasidagi munosabat haqida o‘zining ta’limotini o‘rtaga tashlab, bir tomondan, buyuk adabiyot va estetika nazariyotchisi sifatida ko‘rinsa, ikkinchi tomondan, quruq shaklbozlikka, formalizmga zarba beradi. N.ning mazmun b-n shakl orasidagi munosabatlarni to‘g‘ri belgilashi, avvalo, o‘z davri u-n katta ahamiyatga ega bo‘lib, aniq vazifalar va maqsadni o‘z oldiga qo‘ygan edi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Зоҳидов В. Улуғ шоир ижодининг қалби. – Т., 1970; Зоҳидов В. Мир идей и образов Алишера Навоий. – Т., 1961; Ҳайитметов А. Алишер Навоийнинг адабий-танқидий қарашлари. – Т., 1959.*

Ab.H.

SHAM – Sharq mumtoz adabiyotida eng ko‘p qo‘llanilgan tamsiliy obrazlardan biri. Sh. ning yonishi ma’shuqning nurli diydori va adl qaddiga, parvonaning unga muttasil intilishi chin oshiqlikka qiyoslangan. Tasavvuf istilohlariga ko‘ra, “Sham – solikning qalbini yoqqan ilohiy nurning tajalliysi, mushohada ahlining qalbida porlagan ilohiy nuri”, deya izohlangan. Darhaqiqat, tasavvuf adabiyotida Sh. obrazi ilohiy nur, manba, parvona esa ilohiy mohiyatni – manbani anglab yetish timsolidir va u oxir-oqibatda o‘z

maqsadi yo‘lida (o‘zini o‘tga urib) halok (foniy) bo‘ladi.

N. lirikasi va dostonlarida ham parvonaning Sh.ga erishish holatini fano deb baholaydi va bu holatda parvonaning ikki foydasi kabi tasavvufiy fikrni o‘rtaga tashlaydi. Buning sababini, N.ning g‘oyaviy maslagi – naqshbandiylikning mohiyatidan qidirish lozimdir. Ushbu tariqatning yo‘nalishi haqida fikr bildirib, prof. N.Komilov quyidagilarni yozadi: “Naqshbandning diqqat-e’tibori tasavvufni shariat bilan kelishtirish, ilhom hayajon va tug‘yonlarini, Mansur kabi “Anal-Haq” deb nido qilishni so‘ndirdi, lovullagan alangalar o‘rniga laxcha manqallarni paydo etib, betoqat bulbul emas, jimgina shamga talpinib, yonadigan parvonani afzal deb bildi”. Demak, N. ham parvonani sahv tarafdori bo‘lgan solikka qiyoslaydi va ishqidan “nolayu zor” qiluvchi bulbulga – sershovqin mayl – sukra tarafdori bo‘lgan majzub timsoliga ba’zan parallel, ba’zan esa qarshi qo‘yib, go‘zal she’riy san’atlar yaratadi:

Gul yuzida bulbul sening asroringa notiq,
Sham’ o‘tida parvona sening husninga shaydo.
Jamoling partavidin sham’o‘ti gar gulsiton ermas,
Nedin parvona o‘t ichra o‘zin solur Xaliloso.

Sh. va parvona timsollari shoirning mahoratiga qarab rang-barang ma’nolarda qo‘llanilgan, ayniqsa, Yorning jamolini, oshiqning ahvolini tasvirlashda qo‘l kelgan:

Ochqil o‘tlug‘ orazing, ey sham’kim, parvonadek
O‘rtanay boshing uza bir necha qatla aylanib.

Lirik qahramon Yoriga “ey sham’kim”, deb murojaat qiladi va o‘tlug‘ yuzini ochishini aytadi. Oshiq bu b-n Sh.ning o‘tida kuyayotgan parvona singari yorining boshi uzra bir necha bor aylanib, o‘rtanmoqchi bo‘ladi. Shoir oshiqlikni mana shunday o‘rtanish va azoblarsiz tasavvur etolmaydi. Shoir boshqa bir baytida vayrona kulbani yorning husni yoritganidek, har kuygan parvona ham mehr Sh.ni yoritishi haqida kuylaydi:

Ul charog‘i husn vayron kulbani yorutqali
Mehr sham’in yorituptur har kuyuk parvonamiz.

N. ijodida sham’ va shabiston talqini yanada chuqurroq mazmunga ega:

Ul malohat sham’idin mundog‘ki jismim yonadur,
Har bir uchqun g‘am shabistonida bir parvonadur.

Yor malohatining Sh.i sabab oshiq jismining yonishi aytiladi va undan sachragan har bir uchqun g‘am kechasidagi parvonaga qiyoslanadi. Bunda vujud yongandagi uchqunlar parvonaga o‘xshatilib, baytning badiiyatini yanada oshirgan. Shoir boshqa baytida esa Sh. va shabiston istilohlarini birga qo‘llaydi:

Pardag‘a kirgan kibi xurshidi raxshon har kecha,
Azmi xilvat aylar ul sham’i shabiston har kecha.

N.ning faqat turkiy tilda yaratgan devonlarida emas, balki forsiy merosida ham Sh. va parvona obrazlariga duch kelinadi. Zotan, N. va uning salaflari ijodini ham ushbu obrazlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Jumladan, bir tatabbu’ g‘azalida shoir shunday deydi:

Sham’i xurshed, ki gulzori jahon ravshan az ast,
Gule az bazmgohi nuzhati darveshon ast.

Tarj.: Jahon gulzorini ravshan etuvchi oftob sham’i darveshlar poklik bazmining bir gulidir.

N. tatabbu’ yozish an’analariga rioya qilgani holda shakliy belgilarni saqlab, ba’zi ibora-ifodalarni qaytargan bo‘lsa-da, lekin g‘oyani rivojlantirish, yangi tasviriy obrazlar qo‘llab poetik mazmunni chuqurlashtirishga muvaffaq bo‘lgan. Muhimi shundaki, N. o‘z g‘azalida ifodalagan g‘oyalar Hofiz va Jomiy g‘oyalari b-n hamohang. N. ham darveshning martabasini Arshi a’loga ko‘tarib maqtaydi, ularni ezgu ishlar ijodkori, ilohiy rahmat va xayr-u barakat manbayi deb hisoblaydi:

N. she’riyatida uchraydigan Sh. timsoli oshiqlikning odobi, dunyoviy va tasavvufiy mo-

hiyatini talqin etishda muhim o‘rin tutgan. Zero, oshiqlik har doim ham fig‘on-u nola emas ekan, “anjumanda xilvat” ko‘ruvchilarning botiniy ma’rifati, koshiflik yo’lida o‘zgacha yonish, o‘zgacha fidoyi qat’iyat bor. Ushbu bayt mazmuni bizning Sh. va parvona yuzasidan aytgan fikrlarimizni tasdiqlaydi:

Ul o‘tki o‘rtadi parvonani, hamul o‘tdin
Ko‘rungki qovruladur sham’ dog‘i yog‘i bila.

Shoirning mashhur “Qaro ko‘zum kelu...” deb boshlanuvchi g‘azali maqta’sidagi Sh. timsoliga yuklangan ma’no yana-da zalvorli ekanini ko‘rish mumkin:

Navoiy, anjumani shavq jon aro tuzsang,
Aning boshog‘lig‘ o‘qin sham’i anjuman qilg‘il.

Anjumani shavq – shoir oshiq qalbidagi ishtiyoq-istakning avj olishi, yorga yetishish orzusi taraddudini shu ibora b-n ifodalagan (iboraning lug‘aviy ma’nosi – orzumandlik, kuchli rag‘bat majlisi, ma’rakasi). Bundan ruhiy hayajon, qo‘zg‘alish, surur bo’ronining boshlanishi ham anglashiladi. Jon ichida shunday anjuman tuzish ko’ngilning nurli orzularga limmo-lim bo‘lishidir. Boshoqlig‘ o‘q – o‘tkir uchli, o‘tkir tig‘li kamon o‘qi. O‘q uchining boshoqqa o‘xshashligi ham e’tiborga olingan. Shunday ko‘rinishda u chiroyli kiprik va yonib turgan Sh.ga shaklan monanddir. Voqean, *boshoqlig‘ o‘q* deganda, N. yor kiprigini aytmoqchi. Chunki, kiprik – muhabbat o‘qi, qaysikim, to‘g‘ri yurakka borib qadaladi.

Bir o‘rinda N. ustozi va do‘sti Sayyid Hasanni Sh.ga qiyoslaydi. U, aslida, oddiy bir inson, kasbi – sipohiylik, umrining oxirida esa darvesh hirqasini kiyib, xonaqohda o‘tirgan kishi. Biroq N. nazdida, u zamonasining buyuk zotlaridan biri:

Safo subhining mehri purxandasi,
Fano shomining sham’i raxshandasi,

Umuman olganda, bu obrazlar ishtirok etmagan shoir devonini uchratish qiyin, shuningdek, asosiy qahramonlari mazkur obrazlar bo‘lgan bir qator masal, munozara va dostonlar mavjud. M-n, N.ning “L.T.” dostonidagi “Parvonalar majmu’yi Sh. haqiqiy sharhida” (yoki soddaroq nom bilan aytsak, Sh. va parvonalar”) masali ham shu tipdagi asarlar jumlasiga kiradi. Shoirning bu masalida ko’pgina mualliflar va shular qatori o‘z ijodiyotida ham qayta-qayta tilga olinib kelgan oddiy bir detal – parvonalarning yonib turgan Sh.ga intilish hodisasi asos qilib olingan. Unda keltirilishicha, parvonalar bir kecha yig‘ilishib, Sh.ga tolib bo‘ladilar; kelishib olib, Sh.ning mohiyatini anglamoqchi bo‘ladilar. Shunda ulardan biri Sh.ga yaqinlashadi, uning munavvar nurini ko‘rib, qaytib kelib boshqalarga hikoya qilmoqchi bo‘ladi Ammo parvonalar uning so‘zidan hech narsa anglamaydilar, chunki u Sh. nima ekanini tushuntirib bera olmaydi. Shu zaylda yana bir necha parvona Sh. atrofini aylanib kelib, ko‘rganlarini so‘zlaydilar. Lekin “topmadi mushkul kushod andin dog‘i”, ya’ni maqsad amalga oshmaydi.

Sham’ davrida qanot ko‘p urdilar,
Har biri o‘z bol-parin kuydurdilar.

Har biri kuygancha ondin topdi kom,
Sharhi dushvor erdi-yu naqli harom.

Ma’lum bo‘ladiki, har bir parvona Sh. nuridan lazzatlandi, ammo uni sharhlab bera olmadi, chunki shu’lani til bilan sharhlab, tushuntirib bo‘lmaydi, kishi to kuymasa, olov haroratini anglamaydi. So‘nggi parvona qo‘rqmasdan o‘zini shu’laga urib, pok bo‘ladi va o‘zi ham shu’laga aylanadi. U o‘z maqsadi ichra nobud bo‘lib, fanoda ayni muddaoga erishadi:

Foniyo, lofi fano urmog‘ni qo’y,
Vasl esa koming, fano o’tig‘a kuy.

Evrulub sham’ o’tig‘a parvonavor,
O’zni tashla shu’lag‘a devonavor.

N. bundan ikkita xulosa chiqargan: biri – Haq nuriga g‘arq bo‘lib, uning jamoli haroratida yon-

maguncha Haqni anglab bo‘lmaydi. Ikkinchisi – Haqqa yetgan odam (kuygan parvona kabi) bu sirni bayon qilib bera olmaydi. Bu – Haqq ul-yaqinning xuddi o‘zidir. Ya’ni foniy bo‘lish, subyektning obyektga aylanishi, solik vujudining batamom yo‘qolib, ilohiy olamga qo‘shilib ketishi. Inson ham fano o‘tida kuymasdan turib, haqiqatning asl mohiyatiga erisha olmaydi. Shoir hikoyat so‘ngida *Foniy* taxallusini qo‘llash b-n vodiy mohiyatini yanada teranroq, chuqurroq anglatadi

Sh. va parvona timsoliga yana N. dostonning “Qushlar shoh tilab topmag‘ondin mutahayyir bo‘lg‘onda, Hudhud Simurg‘din xabar degoni” bo’limida ham murojaat qiladi:

Hudhud ul nuri xiraddin bahramand,
Rohbarlig‘ afsaridin sarbaland...

Kirdi ul majma’aro devonavor,
Sham’i maqsud vasfida parvonavor.

Ya’ni Hudhud ul aql nuridan (Simurg‘ga yaqinlikdan) bahramand, rahbarlik toji b-n boshi baland demoqda shoir va buning sababini maqsad shamiga parvonalikda ko‘radi. Bunda Sh.ga parvona bo‘lish unga yaqinlik, yana aniqrog‘i, unga sirdosh bo‘lish ma’nosida kelmoqda. Bundan ham maqsad fano – chunki Hudhud N.ning ta’rifi bo‘yicha hodiyi komil – ruhini Ma’shuqqa fano qilgan komil inson va komil ustoz timsolidir.

Demak, N. ijodida va, ayniqsa, “L.T.” dostonida Sh. mutlaq jamol va kamol ramzida, parvona esa bu jamol va kamol ishqida kamolotga erishgan, fano martabasiga chiqqan, biroq o‘z ishqini oshkor qilmagan, sahv yo‘lidagi orif solik timsolida ifodalangan.

Ad.: *Алишер Навоий. ТАТ. 10 жилдлик, 1-10-жилдлар. – Т., 2011; Сажжодий С.Ж. Фарҳанги истильоҳот ва таъбироти ирфони. – Теҳрон, 1379 (ҳ.-ш.).; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. – Т., 1984.; Абдуқодиров А. Тасаввуф истильоҳларининг қисқача изоҳли луғати. 1-китоб. – Хўжанд, 1997.; Iskender Pala. Ansiklopedik divân şiiri sözlüğü. – Istanbul, 2004; Комилов Н. Тасаввуф. – Т., 2009.; Муҳаммадҳусайни Бурҳон. Бурҳони қотеъ. Луғат. – Жилди 2. – Душанбе, 2004.; Ҳаққулов И.Ч. Ўзбек тасаввуф шеъриятининг шаклланиши ва тараққиёти (Ғоявийлик, издошлик, образлар олами) ф.ф.д.дис. – Т., 1995.*

S.O‘., Sh.T.

SHAMINOS – “S.I.” dostonida. N. Iskandarga doimo hamroh bo‘lgan o‘n maslahatchi-donishmandlardan biri sifatida sanab o‘tadi.

Ab.H.

SHAMMASON – qal’a, Jojiramda joylashgan. Tarixiy manbalarda, xususan, “Ravzat us-safo”da Yodgor Muhammad Mirzo voqeasi (1470) va N. shaxsi bilan bog‘liq voqealar bayonida tilga olingan. Chunonchi: “...zafar asarlik askarlar gohida Yodgor Muhammad Mirzo Astrabod dahnasida turgan amir Shayx Hasan Temurning rishtasini uzgan, ammo Hasanning o‘zi Shammason qal’asi tomon qochgan va bir necha kundan keyin qal’adan chiqib, niyozmandlik qo‘lini shahzoda Yodgor Muhammad davlati etagiga urgan, unga tamoman tobe’lik bildirgan, degan xabar tarqaldi”. Bu xabar O‘rdu orasida tarqalgach, Sulton Husayn Boyqaroning harbiy sardorlari uning qoshidan qochib, Yodgor Muhammad Mirzo O‘rdusiga yuzlanadi va natijada, Hirot qo‘ldan ketadi va N. yorliq b-n u yerga yuboriladi.

Ad.: *Навоий замондошлари хотирасида. – Т. 1986.*

B.R.

SHAMOYIL – 1. Tug‘ma fe’l-atvor, xulq, axloq; 2. Shakl, surat, ko‘rinish, tuzilish. Jumladan, N.ning “G‘.S.” debochasida yozishicha, *“kashmiriysi sehrsozlig‘da dilrabovu dilkash va rumiysi turktozliqda kofiroyin-u farangiyvash va*

xitoyisi xunrezlig‘da novakzan-u shershikor va xo‘taniysi fitnaangizlig‘da sherafkan-u g‘izolakirdor” g‘azallari ma’lum miqdorga yetganda, sohibqiron Husayn Boyqaroning kimyoasar nazaridan o‘tkazib olganini yozar ekan, she’rlariga turli san’at va zebolig‘ ila Sh. – ko‘rinish berganini ta’kidlaydi. Shuningdek, kulliyotning har bir devonidan joy olgan “Shin” harfiga tegishli g‘azallarni maxsus nomlar ekan, mazkur harfga mutanosib bo‘lgan Sh. lafzini qo‘llaydi: “Shin” harfining sho‘xlarining shamoyilidin”.

Islom olamida Sh. deyilganda, har bir musulmonning nazarida, avvalo, Muhammad (s.a.v.) gavdalanadi. Zero, sahobalar sevikli Payg‘ambarimiz (s.a.v.)ni shu qadar aniqlik bilan vasf qilishganki, Sh. kitoblarini o‘qiganda, xuddi u zotni ko‘rgandek tasavvur uyg‘onadi. As’hobi kirom Rasulullоh (s.a.v.)ning yuzlari, ko‘zlari, qoshlari, kipriklari, sochlari, qo‘l-oyoqlari, yurishlari, o‘tirishlari, kiyinishlari, ovqatlanishlari, ibodatlari, odamlar b-n muomalalari qandayligini tiniq tavsiflab berishgan. Imom Termiziy ana shunday hadislarni “Sh.”da jamlagan, ularni mohirona tartiblab, boblarga ajratgan. Shunga asoslanib ta’kidlash mumkinki, N. lirik asarlarida Ma’shuq obrazining Muhammad (s.a.v.) ko‘zda tutilgan o‘rinlarida yoki u kishiga bag‘ishlangan na’tlarda, tabiiyki, Payg‘ambarimizning Sh.lari ta’rif-u tavsif etiladi. Baytda ma’shuqaning qomati haqida so‘z ketganda, shoir Sh.ning ko‘rinish, tuzilish ma’nolariga murojaat etgani ma’lum bo‘ladi, ayni vaqtda sarv-u guldagi shakl-u Sh., husn-u latofat ins (odam)u jinda yo‘qdir, deyish b-n yana Rasulullоh (s.a.v.)ning tengsiz barnoliklari madh etilgan:

Noz etki sarv-u gulda, bal ins-u jinda yo‘qtur
Bu husn-u bu latofat, bu shakl-u bu shamoyil.

Yoki:

Bu ne qomat, bu ne raftor-u na shakl-u na shamoyil,
Kim, etar aqlni madhush, dog‘i hushni zoyil.

Ko‘z inson u-n eng katta ne’matlardan biri bo‘lishi b-n birga g‘oyat go‘zal a’zo hamdir, unga nazokatli nargis guli ham hasad qilayotganiga ko‘ra, bu yerda ham Payg‘ambarimiz (s.a.v.) ning ko‘zlari haqida gap ketayotganini anglash mumkin:

Ko‘zung shamoyilini nargis ar ko‘ra olmas,
Sanga ne fikr ko‘zi chiqsun ulki, bo‘ldi hasud.

Buni ayni Sh. so‘zi maxsus ishlatilmagan o‘rinlarda ham osongina payqab olsak bo‘ladi:

Anjum ichra orazing me’roj shomi o‘ylakim,
Tushsa durri shabcharog‘e har taraf shabnam aro.

Misralarda Rasulullоh (s.a.v.)ning Me’roj kechasi yulduzlar orasidan ko‘ringan munavvar yuzlari xuddi oppoq shabnam donalari uzra kechani chirog‘day yoritadigan durga o‘xshatiladi. N. asarlarida bunday namunalarni minglab o‘rinlarda kuzatish mumkin. “X.” beshligida Me’roj kechasi tasviri b-n aloqador barcha o‘rinlarda ham, shubhasiz, Muhammad (s.a.v.)ning tengsiz Sh.laridan bahs etilgan. “F.Sh.” dostonida tasvirlanishicha, Chin hoqoni va Farhod gulnoriy qasrga kirganda, har yonda gullar turli-tuman rang va ko‘rinishda ochilib turganini ko‘rib, behad sevinishadi:

Huvaydo qildi har gul bir shamoyil,
Shah o‘ldi qasri gulgun sori moyil.

Abu Usmon Mag‘ribiydan “Zarif kimdur?” deb so‘rashganda, “Zarif – tabiati, axloqi, fe’li va shakl-u shamoyilida soxtalik bo‘lmagan kishidir”, deya javob bergani haqida N. “N.M.”da yozadi. Umuman, Sh. istilohi N. asarlarida “sharqi shamoyil”, “ifoda shamoyili”, “ulfat shamoyili” singari iboralar shaklida ham uchraydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Абу Ийсо Муҳаммад ат-Термизий. Шамоили*

Муҳаммадийя. Таржимон ва шарҳ муаллифи: Зиёвуддин Раҳим. – Т., 2020.

S.O‘.

SHAMS QAYS ROZIY (to‘liq ismi − Shamsuddin Muhammad ibn Qays Roziy, XII asrning oxiri, Ray − XIII asrning birinchi yarmi) − mashhur fors-tojik adabiyotshunosi. Taxminan XII asrning 80-yy.da Eronning Ray shahrida tug‘ilgan. Boshlang‘ich ma’lumotni ona shahrida olib, qisqa muddatda o‘z davrining asosiy ilmlari, xususan, aruz va ilmi bade’ni mukammal o‘rganadi. Tahsilini kamolga yetkazish maqsadida 1205-y.da o‘sha davrning ilm va madaniyat markazlaridan bo‘lgan Buxoroga keladi. 1207-y. Malik Sanjar isyonini bostirish maqsadida Buxoroni istilo qilgan Muhammad Xorazmshoh olimni o‘z saroyiga da’vat etadi va u 1219-y.gacha Xorazmda yashaydi. Mo‘g‘ullar hujumi tufayli Xorazmni tashlab qochgan Muhammad Xorazmshoh b-n birga Iroqqa hijrat qiladi. 1219–1226-yy. uning hayotidagi sarson-sargardonlik yillari bo‘lib, u shahardan shaharga ko‘chib yurib, mo‘g‘ullar istilosining butun dahshatlarini o‘z ko‘zi b-n ko‘radi. Rayda ikki marta asirga tushib, ko‘p qiyinchiliklarni boshidan o‘tkazadi. 1226-y. Fors otabegi Sa’d ibn Zangi xizmatiga kiradi. Donishmand va tajribali Sh.Q.R. tez orada obro‘-e’tibor qozonib, shohning xos nadimlari qatoridan o‘rin oladi. 1231-y. homiysi vafot etgach, o‘rniga Abubakr ibn Sa’d o‘tiradi. Bu davrda ham olimning maqomi baland edi. Uning shundan keyingi hayoti haqida ma’lumotlar yo‘q.

“Al-mo‘jam fi ma’oyiri ash’ori-il-ajam” (“Ajam she’r o‘lchovlari lug‘ati”) kitobi unga favqulodda shuhrat keltirib, nomini abadiyatga naqsh etdi. “Tibyon ul-lug‘at at-turki alo lison ul-qang‘ali” (“Turkiy tilning qang‘ali tilidagi mufassal bayoni”), “Al-uyub fi muqaffi ash’or ul-arab” (“Arab qofiyasining ayblari”), “Kitob ul-kofi fil-aru-zayn va-l-qavofi” (“Aruz va qofiya xususida batafsi ma’lumot”) kabi risolalar ham yozgan bo‘lib, ular bizgacha yetib kelmagan.

“Al-mo‘jam” debocha, ikki qism va xotimadan iborat. Debochada o‘z tarjimayi holi – tug‘ilgan joyi, yoshlik yillari, turli mamlakatlarga sayohatlari, mo‘g‘ullarning Kichik Osiyoga hujumi va ularning dahshatli oqibatlari, sarson-sargardonliklari, Rayda ikki marta asir tushgani, asarning yozilish sababi va taqdiri xususida fikr yuritadi. Kitobning birinchi qismi aruzga bag‘ishlangan bo‘lib, 4 bobni o‘z ichiga oladi: 1-bob − aruz haqida ma’lumot, ruknlar va ularning nomlanishi, 2-bob − juzvlar va ruknlar asosida vujudga kelgan vaznlar, 3-bob − aruzdagi o‘zgartirishlar − zihoflar, 4-bob − eski va yangi bahrlar tahliliga bag‘ishlangan. Ikkinchi qism qofiya va badiiy san’atlardan iborat bo‘lib, 1-bob − she’r va qofiya tabiati, 2-bob − qofiya unsurlari va ularning nomlanishi, 3-bob − qofiya unsurlarining qo‘llanishi va nomlanishi, 4-bob − qofiyaning qo‘llanish doiralari va qofiya turlarining tasnifi, 5-bob − qofiya qusurlari, 6-bob − badiiy san’atlar haqida. Xotima qismida she’r va shoirlik xususidagi muhim kuzatishlarini bayon etib, badiiy jihatdan sayoz she’rlar va iste’dodsiz shoirlarni tanqid qiladi.

“Al-mo‘jam” adabiyotshunoslik haqidagi qadimiy va mukammal asar bo‘lib, she’r nazariyasi va shoirlik shartlari, shoir va munaqqid munosabati xususidagi muhim manba hisoblanadi. O‘z davridagi ijtimoiy-siyosiy voqealar va adabiy jarayon to‘g‘risida ham batafsil ma’lumot beradi. Mo‘g‘ullar istilosiga qadar ijod qilgan forsiyzabon shoirlar haqida so‘z yuritib, ular ijodidan namunalar keltiradi. Mavjud 19 bahrga ilova qilib, yangi ijod qilingan 21 vazn haqida ma’lumot beradi. Salaflari badiiy san’atlarni umumiy yo‘sinda uch-to‘rt sahifada tushuntirgan bo‘lsalar, u har bir san’atni alohida va batafsil bayon etib, ularga misollar keltiradi. San’atbozlikni tanqid qilib, ularni ikkiga ajratadi: haddan tashqari ko‘p san’at ishlatilgan she’rlarni mutakallif (soxta va g‘ayritabiiy she’r), sodda va tabiiy she’rlarni matbu’ (yoqimli) deb ataydi. O‘tmish va zamondosh shoirlarning she’rlarini ilmiy asosda keng va chuqur tahlil qiladi. Bunda so‘z mantiqi, qo‘llanish o‘rni va fikrning ifoda tarziga alohida e’tibor beradi. Shakl va mazmun birligini talab qiladi. Mazmun − asos, shakl − tobe bo‘lishi kerak, deydi.

“Al-mo‘jam” o‘zidan keyin yaratilgan ilmi bade’ga oid barcha asarlarga ta’sir ko‘rsatgan − mumtoz va zamonaviy adabiyotshunoslarning barchasi Sh.Q.R.ni o‘zlariga murabbiy deb biladilar. N. ham “Mezon ul-avzon” asarida uni aruz fanidagi ustozi sifatida e’tirof etadi. Uning she’r mohiyati, shoirlik shartlari, badiiy san’atlarni qo‘llash me’yorlari haqidagi fikrlari hozirgi davrda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas.

Ad.: *Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Тоиров У. Шамси Қайси Розий ва “Ал-мўъжам фи маъойири ашъор-ил-ажам”и ў // Шамси Қайси Розий. Ал-мўъжам. – Душанбе, 1991; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 1. – Душанбе, 1988; Очилов Э. Шамс Қайс Розий // ЎзМЭ. 9-жилд. – Т., 2005; Шамси Қайси Розий. Ал-мўъжам. – Душанбе, 1991.*

E.O.

SHAMSIYEV PORSO (1897.10.2. Buxoro – 1973. 23.3. – Toshkent) – o‘zbek matnshunos olimi, n.shunos. F.f.d-ri (1970), O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi (1972). Dastlab Buxoro maorifini tashkil etish ishlariga faol qatnashgan. Maorif tizimida (1925–1930), O‘zbekiston Davlat pedagogika nashriyotlarida (1931–40) muharrir, N.ning 500 yillik yubileyini tayyorlash qo‘mitasida maslahatchi (1940–41), O‘zR FA nashriyotida katta muharrir bo‘lib ishlagan. 1945-y.dan hayotining so‘ngiga qadar O‘zR FA Til va adabiyot institutining katta ilmiy xodimi bo‘lgan.

1952-y.da Sh.P. N. “Sab’ai sayyor” dostonining ilmiy-tanqidiy matnini tayyorlab uni nomzodlik dissertatsiyasi sifatida himoya qiladi. 1956-y.da esa uni alohida nashr ettirdi.

Sh.P. matnshunoslikka doir izlanishlari natijasida “Xamsa”ning to‘liq nashrini amalga oshirdi. Bu nashr matnning to‘laligi, savodliligi jihatidan puxta tayyorlangan. Keyinchalik nashr matni N. 15 tomligiga kirgan “Xamsa” dostonlari u-n asos bo‘ldi. Sh.P. “Alisher Navoiy “Xamsa”sining ilmiy-tanqidiy teksti va uni tayyorlash prinsiplari” mavzusida 1970-y.da doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi.

Sh.P. Sulton Ali Mashhadiy va Abduljamil kotiblarning hayoti va xattotlik san’ati haqida hali ma’lum bo‘lmagan ma’lumotlarni mufassal sharh hamda izohlar b-n ilmiy taomilga olib kirdi. Jumladan, Britaniya muzeyi fondida saqlanuvchi Abduljamilning “Tuhfat us-salotin” nomli asarni kotibning asari bo‘lmay, uning tomonidan N. g‘azallaridan tuzilgan baytlar majmuasi ekanligini, baytlar esa 45 mavzu bo‘yicha saralanib, “Tuhfa”lar deb atalganini va majmuada 408 bayt mavjudligini aniqlab bergan edi.

Sh.P. ko‘plab fondlardagi N. qo‘lyozmalarini o‘rganib chiqqan, ular orasida fanga ma’lum bo‘lmagan, sharhlanmagan mohir nusxalarni topgan va ularning ilmiy tavsifini bergan. Jumladan, Qozon davlat universiteti qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan N.ning “X.” qo‘lyozmasi XVI asrga mansubligini, uni boshqa eng qadimiy va mo‘tabar nusxalari b-n muqoyasa qilib chiqqach, N. qo‘lyozmasiga yaqin turgan, to‘liq, nuqson va farqlari oz bo‘lgan qo‘lyozma ekanligini, shuningdek, yana Qozonda 976/1568-y.da Hirotda Mahmud kotib tomonidan ko‘chirilgan N. “Ilk devoni”ni ham aniqladi va ilmiy tavsifini berdi. Olim 893/1487–88-y.da Hirotda Abduljamil tomonidan tuzilgan N.ning ikkinchi rasmiy devoni “N.N.”ning qadimgi nusxasini topdi va uni Sulton Ali Mashhadiy ko‘chirgan shu devon qo‘lyozmasi b-n qiyoslab, asosiy tafovutlarni qayd qilib chiqdi.

Sh.P. N. 15 tomligi uchun “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Mahbub ul-qulub”, “Munshaot”, “Vaqfiya”, “Xamsat ul-mutahayyirin”, “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”, “Holoti Pahlavon Muhammad”, “Nazm ul-javohir”, “Arbain” kabi asarlari va “Xamsa”ning hamma dostonlarini tayyorlab bergan edi.

“O‘zbek klassik adabiyoti asarlari uchun qisqacha lug‘at”, “Navoiy asarlari lug‘ati” (S.Ibrohimov bilan hamkorlikda) kabi lug‘atlar, “O‘zbek adabiyoti (xrestomatiya o‘rnida), “O‘zbek poezi-

yasi antologiyasi” (5 tomlik, 1961-62), “Boburnoma” (S.Mirzayev b-n birga) kabi asarlar nashr etilishida Sh.P. xizmatlari benihoya katta. Shuningdek, Sh.P. Jomiyning N., N.ning esa Jomiy haqida yozganlarini yig‘ib, alohida so‘zboshi b-n “Jomiy va Navoiy” nomli to‘plamni nashr ettirdi.

Sh.P. G‘afur G‘ulom asarlarini nashrga tayyorlash ishlarida ham faol qatnashdi. Olim N. asarlari nashri haqida ham ilmiy maqolalar e’lon qildi.

Sh.P. Xondamirning N.ga bag‘ishlangan “Makorim ul-axloq” asarini (M.Faxriddinov bilan birga) o‘zbek tiliga tarjima qilgan.

Ad.: *Ўзбек матншунослигига оид тадқиқотлар. – Т., 1986.*

S.G‘.

SHAMSUN OBID – N. yozishicha, Iso (a.s.) b-n hazrat Risolat (s.a.v.) zamonlarining orasida arablar ichida kechasi b-n ibodat qiladigan bir obid bo‘lgan. Tangri taolo unga shunday jismoniy kuch bergan ekanki, mushriklar necha marta qasd qilsalar ham, zafar topa olmaganlar. Hech bo‘lmagandan keyin qavmning hukmdori obidning xotinini qo‘lga oladi va u yerini tutib bersa, o‘z nikohimga olaman, deb va’da beradi.

Bir kechasi Sh.O. uyquga ketganida, g‘addora ayol uning oyoq-qo‘lini arqon b-n qattiq bog‘lab tashlaydi. Sh.O. uyg‘onib, bir kerishganda barcha arqonlarni uzib yuboradi. Bu bog‘lab tashlashining sababini xotinidan so‘raganida, sening kuchingni sinamoqchi edim, deya aldaydi. Mushriklar bu ishdan natija chiqmagandan keyin, xotinga zanjir berib yuboradilar. Bu safar xotini uni zanjir b-n bog‘lab tashlaydi. Sh.O. yana uyg‘onib, bir kuchanib, zanjirni uzib yuboradi. Bu ish ham natija bermagach, xotini makr yo‘liga o‘tib, sizni qanday bog‘lasa yecholmaysiz, deya ayyorona so‘raydi. Sh.O. kimki meni o‘z soch-soqolim b-n chirmab bog‘lasa, yecha olmayman, deb javob beradi. Buni eshitgan xotin kofirlarni xabardor qilib, belgilangan kechasi uyining oldiga kelib turishlarini aytadi. O‘sha kecha xotini erini o‘z soch-soqoli b-n bosh barmog‘ini bog‘lab, kofirlarga topshirib yuboradi. Ular Sh.O.ni bandi qilib, podshoh huzuriga eltadilar. Podshoh uni to‘rt ustunga bog‘lashni va keyin qatl qilishni buyuradi. Sh.O. bu holatda duo qilgan edi, bir qushga amr bo‘lib, uni banddan qutqardi. U banddan xalos bo‘lgach, ustunlarni tortib, saroyni podshoh ustiga qulatadi va butun saroy ustunlar ostida qoladi. Natijada, podshoh va uning xizmatkorlaring barchasi halok bo‘ladilar.

Sh.O.ga bu voqe’lar ma’lum bo‘lgach, xotinini taloq qiladi.

N. yozadiki, rivoyatlarga ko‘ra, Sh.O. ming oy ibodat qilgan. Tafsir ahli Qur’oni Karimning “Qadr” surasida keltirilgan “Qadr kechasi ming oydan yaxshiroq” (3-oyat) oyatidan maqsad o‘sha Shamsun ibodat qilgan ming oydir. Ba’zi tafsirlarda keltirilishicha, o‘tmishda Bani Isroildan bir kishi qurol olib ming oy Alloh yo‘lida jihod qilgan ekan, “Qadr kechasi ming oydan yaxshiroq” degan oyat shunga ishoradir.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Ҳусайн воиз Кошифий. Тафсири Ҳусайний. – Бомбей, 1312 (ҳ.-ш.).*

S.R.

SHAMSHOD (f.) – hamisha ko‘m-ko‘k bo‘lib yashnab turadigan, barglari mayda-mayda va g‘uj-g‘uj bo‘lgan daraxt. Tanasi qattiq bo‘lib, undan har xil narsalar yasaydilar. Tik va chiroyli daraxt bo‘lganligidan uni sarvga ham o‘xshatadilar. Aynan baland va mavzun bo‘yli ekani, mayda va g‘uj barglari qizlarning sochiga o‘xshab ketganidan uni go‘zallarning kelishgan qadd-u qomatiga ham tamsil etadilar. Sh. N. asarlarida ham ana shunday mazmunlarda qo‘llanadi. M-n:

Shamshodig‘a titramak padidor,
Tong yelidin o‘ylakim sapidor.

Ad.: *Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Ғиёс уллуғот. Жилд 1. – Душанбе, 1987.*

M.A.

SHARAFIDDIN ALI YAZDIY (taxminan XIV asr oxiri − Yazd shahri yaqinidagi Taft mavzeyi − 1454) − mashhur muarrix, adabiyotshunos va shoir. Otasi Shayx Hoji o‘z davrining yirik olimlaridan bo‘lib, tasavvuf ahli bilan hamfikr edi. Sh.A.Y. ham so‘fiylar bilan yaqin aloqada bo‘lgan. 1435-y.gacha Sherozda − Shohruxning o‘g‘li Ibrohim Sulton saroyida xizmat qilgan. 1429-y.i uni Shohrux saroyga da’vat etib, Ulug‘bekka murabbiy qilib tayinlagani haqidagi ma’lumotlar mavjud. Manbalarda uning Samarqandga − Mirzo Ulug‘bek huzuriga borgani to‘g‘risida ham gap boradi. Ibrohim Sulton vafotidan keyin Shohruxning nevarasi, Sultoniya, Qazvin, Ray va Qumni o‘z ichiga olgan viloyat hokimi Mirzo Sulton Muhammad saroyiga taklif etiladi. U Shohruxning kasalligidan foydalanib, atrofdagilarining qutqusi b-n 1445–1446-yy.da isyon ko‘taradi, Hamadon va Isfahonni egallaydi, Sherozni qamal qiladi. Shohrux bu isyonni bostirib, gunohkorlarni jazolaydi. Ular orasida Sh.A.Y. ham bor edi. Shahzoda Abdullatif uning gunohini so‘rab olib, o‘zini Hirotga jo‘natadi. Hirotda u Jomiy b-n uchrashib, Taftga qaytadi. Umrining oxirigacha bir xonaqohda yashab, shu yerda dafn etiladi.

Markaziy Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarining XIV va XV asr boshlaridagi tarixidan bahs yurituvchi “Zafarnoma” asari unga favqulodda shuhrat keltirdi va uning nomini zabardast muarrix sifatida tarix sahifalariga naqshladi. Bu asar “Fathnomayi sohibqiron”, “Tarixi jahonkushoyi Temuriy” nomlari b-n ham yuritiladi. U 1419–1425-yy.da Sherozda fors tilida yozilgan. Muallif niyatiga ko‘ra, u muqaddima va uch qismdan iborat bo‘lishi kerak edi. Muqaddimada turkiy qabilalar tarixi, Chingizxonning to‘rt ulusi va Temur shajarasi umumiy yo‘sinda bayon qilingan. Birinchi qism Amir Temur hayoti va faoliyatini aks ettiradi. Shohrux va Ibrohim Sultonga bag‘ishlangan ikkinchi va uchinchi qismlari yo yozilmagan, yo bizgacha yetib kelmagan. Asar Ibrohim Sultonning tashabbusi, yordami va homiyligida 1424–1425-yy. Sherozda yozilgan. “Zafarnoma” − Temur yurishlari haqidagi rasmiy hujjatlar, tarixiy asarlar va bu yurishlarning bevosita shohidi bo‘lgan kishilarning hikoyalariga asoslanganligi jihatidan Sohibqiron haqidagi asarlarning eng mukammali hisoblanadi.

Sh.A.Y. ilmi zohir va ilmi botinda tengsiz bo‘lib, xususan, hay’at ilmida davrining yagonasi edi. U ilmi nujum, she’riyat va tasavvufga oid qator asarlar yozgan: “Hulali mutarraz dar muammo va lug‘az” (“Muammo va topishmoqlar borasida bezakli libos”), ushbu asarning qisqartirilgan nusxasi bo‘lmish “Muntaxabi Hulal”, “Mavotin yo manozir dar muammo” (“Muammo fanida turar joy va manzaralar”), “Qunh uz-zod dar ilmi vaqfi a’dod” (“Adadlar muvofiqligi ilmida haqiqat cho‘qqisi”), “Al-kitob fi ilmi usturlob” (“Usturlob ilmiga oid kitob”), “Devoni Sharaf Yazdiy” (“Sharaf Yazdiy devoni”), “Haqoyiq attahlil” (“Tahlil haqiqatlari”), “Sharhi “Qasidayi burda” (“Qasidayi burda” sharhi”), “Sharhi “Asmoulloh” (“Ollohning ismlari” sharhi”), “Tuhfat ul-faqir va hadiyat ul-haqir” (“Faqirning tuhfasiyu haqirning hadyasi”), “Munshaot” (“Maktublar majmuasi”), Amir Temur tarixiga bag‘ishlangan nomsiz she’riy asar.

Shohrux vafotidan keyin boshlangan toj-taxt talashlari davrida Xurosondan qochib, Iroqqa borayotgan N. oilasi Taftda Sh.A.Y. b-n uchrashadi. Mashhur muarrix yosh Alisher b-n savol-javob qilib, zehniga tan beradi va uning haqqiga duo qiladi.

Keyinchalik N. “M.N.”ning ikkinchi majlisida unga alohida fasl bag‘ishlab, bu uchrashuv tafsilotlarini bayon qiladi, mashhur asarlari haqida fikr yuritadi va fazl-u kamoloti haqida, jumladan shunday deydi: “Mavlononing sohibkamollig‘i olam ahli qoshida musallamdur”. Misol tariqasida tab’i nazmidan bir forsiy matla’ ham keltiradi. Umuman, N.ning “M.N.” tazkirasidagi Sh.A.Y. to‘g‘risida yozgan ma’lumotlarini ikkiga ajratib o‘rganish mumkin: 1) tazkiraning ikkinchi majlisida Sh.A.Y. hayoti va faoliyatiga alohida to‘xtalgan; 2) asarning Mavlono Uloi Shoshiy, Mavlono Muhammad Omiliy, Mavlono Lutfiy to‘g‘risidagi fiqralarida ma’lum bir adabiy, ma’-

rifiy ta’sir yoki adabiy aloqa sabab yo‘l-yo‘lakay Sh.A.Y.ni ham esga olib o‘tgan.

“N.M.” tazkirasida esa shayx-u valiylar qatorida zikr etib, “donishmand va sohibkamol kishi” ekanligi, “o‘z zamonasida adili va naziri yo‘q”ligi, tasavvufda “Xoja Soyinuddini Turk shogirdi”ligi, “Soyir usulida va tasavvufning ham ilmida otin a’lam” tutishlari, “Taftda xonaqohi, shogirdi va muridlari” borligi haqida ma’lumot beradi. “Humal” asarining muqaddimasida tasavvuf ahlining istilohlarini ramz-u imo b-n shunday bitganki, ularni faqat so‘fiylarning eng yetuklari tushunsalar kerak, deb yozadi. “Zafarnoma”, “Qasidayi burda” sharhi” va “Asmoulloh“ sharhi” asarlari mashhurligi, “Hulal”, “Munozara” va “Muntaxab” asarlari borligini qayd etadi.

N. “T.M.A.” va “T.A.H.” asarlarini yozishda Sh.A.Y. “Zafarnoma”sidan foydalangan va bu asar N. u-n muhim manbalardan biri bo‘lib xizmat qilgan.

XV–XVI asrlarda Lutfiy va Hotifiy “Zafarnoma”ning she’riy tarjimasiga qo‘l urganlar. XVI asr boshlarida shayboniyxonlardan Ko‘chkunchixonning topshirig‘i b-n Muhammadali ibn Darveshali Buxoriy uni o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Hofiz Muhammad ibn Ahmad tomonidan turk tiliga ham o‘girilganligi to‘g‘risida ma’lumotlar mavjud. 1822–1823-yy.da Xivada Xudoyberdi ibn Qo‘shmuhammad So‘fi al-Xivaqiy asarni qisqartirib o‘zbekchalashtirgan. XVIII asrdan boshlab asarning ayrim qismlari fransuz (Peti de la Kroa, 1713), ingliz (J.Darbi, 1723) va rus tillariga tarjima qilingan. Uning asosiy qismi fors tilida Kalkuttada (1887–1888), Tehronda (1957) chop qilingan. 1972-y.i taniqli sharqshunos olim A.O‘rinboyev tomonidan uning faksimil nashri Toshkentda bosilib chiqdi. Amir Temur tavalludining 600 yilligi munosabati b-n “Zafarnoma”ning Movarounnahr voqealariga bag‘ishlangan qismining ilmiy izohli tarjimasi O.Bo‘riyev tomonidan amalga oshirilib, o‘zbek tilida nashr etildi.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. – Т., 1972; Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. – Т., 1994; Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. Иккинчи жилд. – Т., 2008; Буюк сиймолар, алломалар. 2-китоб. – Т., 1996; Ўринбоев А. Сўзбоши // Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. – Т., 1994; Норқулов Н. Темурийлар даври маданияти тарихидан лавҳалар. – Хоразм, 1996; Минг бир рубоий. – Т., 2009.*

B.R., Q.E., E.O.

SHARAFIDDINOV OLIM (taxallusi Ayn) (1903, Toshkent − 1943, Belorussiya) − adabiyotshunos. O‘zbekiston FA ning muxbir a’zosi (1943), 2-jahon urushi ishtirokchisi (1941–43; urushda halok bo‘lgan). Eski maktabda arab, fors tillarini, mumtoz adabiyotni o‘rgangan. Toshkentdagi Erlar bilim yurtida o‘qigan (1918–20), Boku oliy ped. in-tini tugatgan (1925). Turk olami tarixi, falsafasi, adabiyotini, shuningdek, xorijiy va antik adabiyotni chuqur o‘zlashtirgan. Bokudan qaytgach, Erlar bilim yurtida, Ta’lim-tarbiya texnikumida, yozgi o‘qituvchilar tayyorlash kurslarida (1925–30) adabiyotdan dars bergan. Samarqanddagi O‘zbekiston pedagogika akademiyasi (1930–32), Toshkentdagi madaniy qurilish (1932–33), Til va adabiyot (1937) in-tlarida, Navoiy yubileyini o‘tkazish qo‘mitasida (1938–41) ilmiy xodim, bo‘lim mudiri, O‘rta Osiyo un-tida (1933–35), Toshkent ped. in-tida (1935–38) dotsent, kafedra mudiri bo‘lib ishlagan.

Sh.O.ning adabiy tanqid sohasidagi, xususan, Cho‘lpon va Abdulla Qodiriy ijodlariga bag‘ishlangan dastlabki maqolalari XX asrning 20-yy. da e’lon qilingan. U, shuningdek, Hamza, S.Ayniy, Uyg‘un, A.Lohutiy va boshqalar ijodi haqida ham bir qancha maqolalar yozgan, o‘rta maktablarning 5-, 6-, 7-, 9-sinflari uchun adabiyotdan darslik, xrestomatiya va dasturlar tuzgan. Uning 7-sinf uchun yozgan “Adabiyot. XIX–XXasr-

lar” darsligi bir necha bor nashr etilgan. Sh.O. ilmiy ijodining asosini N. ijodining turli qirralariga bag‘ishlangan o‘nlab maqolalari va “Alisher Navoiyning hayoti va ijodi” (1939, 1967, 1971, 1978) monografiyasi tashkil etadi.

M.Nikitskiy, V.Baltold, Y..Bertels, A.Fitrat, A.Sa’diylarning bu boradagi tadqiqotlarini davom ettirib va rivojlantirib, Mirxondning “Ravzat us-safo”, Xondamirning “Habib us-siyar”, “Makorim ul-axloq”, Davlatshohning “Tazkirat ush-shuaro”, Boburning “Boburnoma”, Vosifiyning “Badoye’ ul-vaqoye’” kabi birlamchi manbalarga tayanib yozilgan shoir haqidagi o‘zbek tilidagi bu dastlabki mustaqil tadqiqot muallifiga haqiqiy shuhrat keltirdi. Uning tadqiqoti N. asarlari nuktadonlik b-n tahlil qilinganligi, yangi ma’lumotlarga boyligi, hassos zavq b-n samimiy ruhda yozilganligi, sodda va ravon uslubi ila alohida ajralib turadi. Unda ulug‘ shoirning hayoti, faoliyati, merosi bir butun holda o‘rganiladi. Monografiyaning katta qismi “Xamsa” tahliliga bag‘ishlangan. U har bir dostonni alohida-alohida olib, avval syujetini hikoya qilib, keyin tahlilga o‘tadi. Albatta, zamona zayli b-n u shoir asarlarini dunyoviy talqin qilgan, ularning tasavvufiy jihatlariga e’tibor qaratmagan, diniy asarlarini chetlab o‘tgan bo‘lsa-da, Navoiy asarlarining umumiy g‘oyasi va mazmunini to‘g‘ri belgilagan, uning buyuklik sirlari va mahorati qirralarini bilimdonlik b-n ochib bergan. U bu asarlarni chuqur va sinchiklab o‘rganib, ularning ruhiga kira olgan, mohiyatini teran tushungan, yuksak badiiy qimmatini ko‘rsata bilgan. Sh.O. monografiyasining yana bir jihati shundaki, u birinchi manbalardan to‘plangan boy materiallar asosida yozilgan. Bu ishni garchi akad. V.V.Bartold “Mir-Ali-Sher va siyosiy hayot” tadqiqotida boshlagan bo‘lsa ham, lekin u asosan N.ning ijtimoiy-siyosiy faoliyatini yoritishga ko‘proq ahamiyat bergan, uning adabiy faoliyati siyosiy faoliyati soyasida qolgan edi. Sh.O.N.ga, avvalo, shoir sifatida qaragan. Shu bilan birga Sh.O. o‘z tadqiqotini yaratishda tarixiylik tamoyillariga izchil amal qildi. Muallif N. yashab ijod qilgan davrdagi adabiy-madaniy muhit, N. ijodi yuzaga chiqishida bu muhitning o‘rni, xususan, XV asrning ikkinchi yarmiga kelib o‘zbek adabiyoti erishgan yutuqlar, ularga N.ning munosabatini ko‘rsatishga katta e’tibor berdi. N. ijodining o‘ziga xosligi, uning o‘zbek va boshqa Sharq xalqlari adabiyotida chuqur ildizi borligini ishonchli qilib ko‘rsatishga erishdi. S.Ayniy Sh.O.ning “Alisher Navoiy” monografiyasi haqida: “Bu “Tarjimayi hol” bugungacha N. to‘g‘risida yozilgan “Tarjimayi hollar”ning eng to‘g‘risi, eng to‘lasi va eng mazmunlisi” deb yozgani bejiz emas edi.

Sh.O. N. faoliyatiga, uning o‘zbek adabiyoti tarixida tutgan o‘rniga g‘oyat to‘g‘ri baho berganini alohida ta’kidlash joiz. Jumladan:

“Alisher Navoiy o‘zining ko‘p qirrali ijodiyoti b-n o‘lmas asarlar yaratgan shoir, faylasuf, lingvist, tarixchi, rassom, bastakor, san’atkor va olimlarning bilimdon homiysi sifatida tarixda sharafli nom qozondi. Uning juda ko‘p sondagi mazmundor she’rlari o‘zining formasi, jarangdorligi, fabulasining o‘quvchiga zo‘r ta’sir qoldiradigan usta ishlanishi b-n kishini o‘ziga tortadi. Ular chuqur gumanistik g‘oyaviy mundarija, xalqchil fikrlar bilan sug‘orilgandirlar” (O.Sharafiddinov. Tanlangan asarlar. – T., 1978, 22-bet).

“Navoiy poetikasining ba’zi xususiyatlari to‘g‘risida” nomli maqolasi shoir mahorati qirralarini ancha keng va chuqur yoritishga yo‘naltirilganligi b-n e’tiborga molik. Olimning “Xamsa” dostonlari yuzasidan olib borgan nozik kuzatishlari hali-hanuz o‘quvchilarni qoyil qoldiradi. N. merosiga beqiyos hurmati balqib turgan “Navoiy ijodining xato talqinlariga qarshi” nomli ilmiy-nazariy jihatdan baquvvat maqolasida Abdurahmon Sa’diyning XX asrning 20–30-yy.dagi N. ijodi b-n bog‘liq sayoz va biryoqlama qarashlarini keskin tanqid qilgan.

Olimning 1939-y. “Qizil O‘zbekiston” gazetasida bosilgan “Navoiy ijodiyotini qalbakilashtirishga qarshi” maqolasi N. adabiy merosini soxtalashtirish, n.shunoslikdagi vulgar sotsiologizm ko‘rinishlariga qaqshatqich zarba berdi. Olim vafotidan keyin 1948-y. bosilgan “Bahromgo‘r

obrazi va “Sab’ai Sayyor” to‘g‘risida” degan maqolasi shoir asarlarini ilmiy-qiyosiy o‘rganishni boshlab bergan jiddiy maqolalardan biridir.

Ad.: *Алишер Навоий (Ҳаёти ва ижоди). – Т., 1972; Танланган асарлар. – Т., 1978; Шарафиддинов О. Танланган асарлар. – Т., 1978; Расулов А. Олим Шарафиддинов // ЎзМЭ, 9-жилд. – Т., 2005. Расулов А. Олим Шарафиддинов // ЎТА, 2004, № 2. Атаниязова М. Олим Шарафиддинов − Навоий ижоди тадқиқотчиси // ЎТА, 2010, № 3.*

S.O‘., Sh.R.

“SHARBATI KAR BO‘LDI ERSA OQIBAT...” – N.ning “N.Sh.” devonidan o‘rin olgan qit’asi:

Sharbati gar bo‘ldi ersa oqibat,
Zotida lekin karam bordur amin.

Ushbu ikki vajh ila ermas ajab,
Gar aning otin xitob etsang karim.

Bu to‘rtlikka “Sharbatning qulog‘i og‘irligiga qit’a demak...” deb sarlavha qo‘yilgan. Savol tug‘iladi: bunday “bag‘ishlov” kasalga chalingan kishiga malol kelmaydimi? Sarlavhada “agarchi bu ham anga og‘ir kelur”, degan uzrli jumla bor. Odamning vujudi va a’zolari xastalanishi tabiiy. Biroq undagi olijanob fazilatlarning shikastlanishi yomon. Sharbatining esa qulog‘i og‘irlashgani b-n zotidagi qaram omon saqlangan. U ham karim – saxiy, marhamatli, ham amin – ishonchli posbon.

Hamza Hakimzoda Niyoziy saxiylarni uch toifaga ajratib yozadi: “Ularning yana bir qismida davlat bo‘lmas, lekin davlati bor kishilarni va’z-u nasihat qilib, ehson qildirur, beva-bechoralarga ishlab topgan nimarsasini xoh libos, pul bo‘lsin uloshib berur. O‘zini ochdan o‘lmog‘iga ko‘zi yetib tursa xam o‘zidan boshqa xoh hayvon, odam bo‘lsun qorni och kishiga qo‘lidagi oshab turgan taomini berur. O‘zini o‘lmog‘i bilan ishi bo‘lmas. Har doim umumga foydasi ko‘proq tegadurg‘on ishlarni qilur. Birgina umumni foydasi uchun bo‘ladurgan ishga vatan, xonumon, balki shirin jonidan ham kechar. Mana bu zotlarga Karim deyilur”. Shunday fazilatlar sohibini odamlar kar “yorlig‘i” bilan tilga oladimi? Kar deyilsa ham, bu so‘z karim bo‘lib eshitilaveradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2011; Ҳаққул И. Касби камол ўзни танишдир. – Т., 2021.*

I.H.

SHARBATIY (XV asrning II yarmi) – N.ga yaqin bo‘lgan shoirlardan. N. xonadonida ulg‘ayib, voyaga yetgan. Juda salohiyatli va qobiliyatli bo‘lgani u-n ko‘p fanlar bo‘yicha bilimlarni egallagan. Shuningdek, naqqoshlikni ham bilgan. She’r ham yozgan. N. uni “M.N.”ga kiritgan va quyidagi forsiy baytni ijodidan namuna sifatida keltirgan:

Junun omad shior va mehri ro‘yi on parizodam,
Mani devona z-on ro‘ dar zaboni mardum aftodam.

Tarj.: O‘z parizodim yuzining mehri va junun menga odat bo‘ldi. Men devona shu sababli xalq tiliga tushdim.

N.ning Sharbatiyga bag‘ishlangan hazilomuz qit’asi bor va u “N.Sh.”devoniga kiritilgan. Qarang: *“Sharbatiy kar bo‘ldi ersa oqibat...”*

Ad.: *Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

Q.E.

SHARIAT (ar. – ostona va suv ichish joyi; to‘g‘ri yo‘l; izhor qilmoq, bayon qilmoq; islom hukmlari, qonun-qoidalari, qonunchiligi). Shar’iy istilohda Islom dinining hukmlar to‘plami, Alloh taoloning amr va taqiqlari “shariat” deyiladi. Sh. ning qo‘llanishi Qur’oni Karimning

“Josiya” surasi 18-oyatiga asoslanadi: “So‘ngra (ey Muhammad!) Biz sizni (diniy) ishdan iborat shariat uzra (barqaror) qildik. Bas, Siz o‘shanga ergashing va bilmaydigan kimsalarning havoyi (fikr)lariga ergashmang!”

O‘tmish va hozirgi zamon huquqshunos olimlari tomonidan Sh.ga turlicha ta’riflar berilsa-da, ular mohiyatan bir xil: “Sh. – Alloh tomonidan o‘rnatilib va payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v) orqali insonlarga yuborilgan, so‘zsiz bajarilishi shart bo‘lgan me’yorlar va ko‘rsatmalar yig‘indisidir”. Omma tushunchasiga ko‘ra ham, Sh. xilma-xil diniy, axloqiy, huquqiy, maishiy hamda axloqiy me’yorlar, umuman, islomiy turmush tarzi, keng qamrovli islomiy xulq-atvor qoidalari majmui sifatida tushuniladi. Payg‘ambarlar da’vat etgan dinlarning asosi bir bo‘lsa-da, ular yetkazgan hukmlar, ya’ni Sh.lar turlichadir. Shuning uchun o‘tmishda ma’lum bir payg‘ambar davrida joriy bo‘lgan diniy hukmlarni keyin kelgan payg‘ambar o‘ziga yetkazilgan ilohiy hukmlar (shariat) orqali mansux (bekor) qilgan. Payg‘ambarimiz (s.a.v.) yetkazgan hukmlar, ya’ni Islom shariati qiyomatgacha davom etadi. Insonlar manfaatini ta’minlash va uni himoya qilishda Sh.ning o‘z talab va tavsiyalari mavjud. Sh.ning sinonimi sifatida ash-shar’, islomiy ash-shir’a, islomiy at-tashri’ so‘zlari ham ishlatiladi. Sh.ning farz, vojib, sunnat, harom, makruh kabi asos-tayanch tushunchalari bo‘lib, ular o‘ziga xos ma’nolarni anglatadi. Islom shariatiga muvofiq bo‘lishni ta’minlovchi qonunlar va mezonlar “fiqh” deyiladi. Umuman Sh. islomda Alloh joriy qilgan amaliy hukmlar majmui bo‘lgani u-n ba’zan fiqh ma’nosida ham qo‘llanadi. Unga ko‘ra, Sh. – “musulmonlarning Qur’on asosida ishlab chiqilgan diniy, jinoiy va fuqarolik qonun-qoidlari”ni anglatadi. Sh. ba’zan din va islom ma’nosida ham keladi. Sh.ning sunniylik va shialik yo‘nalishi bo‘yicha juda ko‘p adabiyotlar nashr bo‘lgan va qadimdan madrasalarda o‘qitilib kelingan.

N. yoshlikdan Sh. ilmlarini puxta o‘zlashtirib, hayoti davomida unga qat’iy amal qildi. Shu bois uning hayotida ham, asarlarining mazmunmundarijasida ham bu ta’limotning chuqur ildiz otganini ko‘ramiz. N.ning bevosita ta’limi va tarbiyasini olgan tarixchi olim G‘iyosiddin Xondamir “Makorim ul-axloq” asarida ulug‘ shoirning “shariat arkonlariga rioya” etib, islom shartlarini ado etishda bosh-qosh bo‘lgani, boshqalarni ham bu yo‘lga targ‘ib qilgani, o‘nlab masjid – madrasalar, xonaqoh va rabotlar qurgani” va h.k.z.lar haqida aytib o‘tadi.

N. hayotiy faoliyatida Sh.ni qanday himoya qilgan va diqqatni qaratgan bo‘lsa, asarlarida ham uni ulug‘laydi, Sh.ga e’tibor qaratishni, ko‘rsatmalarini bajarishni va undan tajovuz etmaslikni ta’kidlaydi. Shoirga ko‘ra, tavhid sirridan xabardor bo‘lishni istagan odam, albatta, Sh.ga amal qilishi kerak. Chunki Sh.ni xor qilish, uning chegaralarini buzib o‘tish murtadlik, dinsizlik hisoblanadi. Bu haqda N. mana nima deydi:

Eyki debsenkim, bilay tavhid sirridin xabar,
Shar’din nekim tajovuz ayladi ilhod bil.

N. bir baytida Sh.dan tashqari, Sh. doirasida bo‘lmagan amallar b-n riyozat chekib, soflikka intilgan odamni go‘yo murdor narsani suv b-n yuvib taskin topgan kishiga o‘xshatadi. Chunki murdor, ya’ni o‘zi o‘lib qolgan narsa har qancha suv bilan yuvilsa ham pok bo‘lmaydi. Demak, ulug‘ shoirning ta’biricha, Sh. zohiriy va botiniy poklikning asosi hisoblanadi:

Shar’din ayru riyozatdin safo kasb aylagan,
O‘yladurkim sof o‘lur taskin bila murdor su.

N. “B.V.” devonidagi qit’alaridan birida yozadiki, johil aqliga ergashgan va yo‘ldan ozgan kishi, Payg‘ambar shariatiga teskari yurganidan keyin “zulmat bodiyasida hidoyat sham’idan bepartav” qoladi, ya’ni unday kishining yo‘lini hidoyat sham’i yoritmaydi – zulmatda qoladi. Aksincha, tavakkul ahli safarda shariat yo‘lidan chiqmagani uchun o‘z manzillariga etadi: *Nabiy shar’idin ayoq chiqarg‘an kajrav ko‘zi zulmat bodiyasida hidoyat sham’idin bepartavdur.*

Bu yo‘lda kimki nabiy shar’idin chiqardi qadam,
Yo‘l ozdi, chunki mute’ o‘ldi aqli johilig‘a.

Tavakkul ahliki chiqmas safarda jodadin,
Yaqindururki, yetar gom birla manzilig‘a.

Boshqa bir baytida “shariati bayzo” (pokiza va nurli shariat)ni “mehr” (quyosh)dan ustun qo‘yishni, quyoshni zarradan ustun qo‘yishga o‘xshatadi:

Demak, shariati bayzoni mehrga rojih,
Quyoshni zarrag‘a qilg‘an kibidurur tarjih.

Tasavvuf kitoblarida “Eng ulug‘ karomat, bu istiqomatdir”, deyiladi. N. “F.K.” devonida shunga ishora qilib aytadiki, Payg‘ambar (s.a.v.) Sh.ida mustahkam turish, solik uchun karomatni egallashdan qiyinroqdir:

Nabi shar’ig‘a topmok istiqomat
Erur solikka mushkilrok karomat.

Mazkur devonning boshqa bir o‘rnida esa shoirimiz talabni yanada qat’iyroq qo‘yib, Sh.ni to‘g‘ri, haq yo‘l deb e’tirof etadi va kimki shariat ko‘prigidan o‘tmasa, jannatga kirolmasligini ta’kidlaydi:

Siroti mustaqim o‘ldi shariat,
Ki jannat topmog‘ung o‘tmay bu puldin

N. “S.M.” asarini maxsus e’tiqod va Sh. masalalariga bag‘ishlagan. Shuningdek, islom shariati buyurgan iymon keltirish, namoz, ro‘za, zakot, haj kabi amallarni, odob-axloq masalalarini “H.A.”, “M”, “V”, “M.Q” kabi qator kitoblarida ham yoritdi. U podsholar va temuriy shahzodalarga nasihat qilganda ham doimo Sh.mezonini unutmadi.

N. “M.Q.” asarida shayxulislom, mufti va qozi kabi Sh. peshvolarini, Sh.ga amal qilgan holda fatvo va buyruq berishlarini, poraxo‘rlik va rishvatdan uzoq bo‘lishlarini qattiq talab qiladi. M-n, u qozilarga munosabat bildirar ekan, aytadiki: “Shar’iy hiylalar girihidin ko‘ngli ochuq, fuqaho tazvirlari tiyraligidin zamiri yoruq. Rishvaxo‘r muftilar – qoshida mankub va hiylakor vakillar – olida ma’yub. Omiy qoziki may ichkay – o‘lturgulukdur va do‘zax o‘tiga yetmasdin burun kuydurgulukdur. Qoziyi rishvaxo‘r – islom hisorig‘a raxnagar. Ulki rishvat berib qazo ola olg‘ay, rishvat olib ham shar’ni buza olg‘ay. Qoziy kerakkim, jodayi shar’din qadam chiqarmag‘ay va siroti mustaqimdin tashqari bormag‘ay. Mustaqim xat har qayonkim, mayl qildi egri bo‘ldi”. Shayx ul-islom ham “komili shar’ bo‘lg‘ay qonunig‘a rosix va barcha mubtade’lar bid’atig‘a nosix”.

N. “M.” asarida sultonlarga nasihat qilar ekan, ularning oddiy odamlarga nisbatan Tangri taolodan hojatlari ko‘proq ekani va shuning uchun Sh.da mustahkam va Tangriga itoatliroq bo‘lishlari lozimligini aytadi: “Har kishi shar’ joddasida rosixroq Tengri taolo bila payg‘ambar (s.a.v.)g‘a mute’roq va murodi hosilroq va baliyotdin eminroq”.

Mashvarat bilan ish tutish lozimligiga e’tibor qaratilgan. N. Sh. talablarini eslatib, bunday deydi: “Kerak erdikim, shar’ rioyati uchun, o‘zingiz ham oz yo ko‘p soqol qirqmasangiz erdi, anga ne etgaykim, elingizning ham soqollarin qirqturmag‘aysiz. Munda ko‘p so‘z bor, desa bo‘lmas”.

N. barcha asarlarida Sh.ni targ‘ib qiladi, unga amal qilish va unga beparvo bo‘lmaslikni ta’kidlaydi. Sh.dan tashqari qadam qo‘yib, harom ishlarga mashg‘ul bo‘lish, zinokorlik, mayxo‘rlik va poraxo‘rlik kabi Sh. qoralagan va taqiqlagan narsalarga berilishni qattiq tanqid qiladi. Ulug‘ shoirning Sh.ga bo‘lgan munosabati uning e’tiqodi va dunyoqarashini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий.*

Вақфия. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ислом энциклопедияси. – Т., 2017; Ғиёсиддин Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Т., 2015; Аҳмад Ҳодий Мақсудий. Ибодати исломия. – Т., 2016.

S.R.

SHARIF FAN – N. tomonidan aruz ilmi va faniga berilgan yuksak baho va ta'rif. "M.A." asarida "Ammo bilgilkim, aruz fanikim, nazm avzonining mezonidur (she'r vaznlarining tarozusidir), sharif fandur. Nevchunkim, nazm ilmi rutbasi bag'oyat biyik rutbadur", deya ta'riflangan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. ТАТ. 8-жилд. – Т., 2011.*

B.R.

"SHARHI RUBOIYOT" ("Ruboiylar sharhi") (to'liq nomi: "Sharhi ruboiyot fi isboti vahdat al-vujud" ("Vahdat ul-vujud isbotiga oid ruboiylar sharhi") – Abdurahmon Jomiy tomonidan o'zining vahdat ul-vujud mavzuidagi 46 ta ruboiysi sharhiga yozilgan risolasi (1473). Asarda avval ruboiylar, so'ng ularning sharhi berilgan. "Xamsat ul-mutahayyirin" asarida N. unga "fano tariqida mosivalloh azosig'a to'rt takbir urmoq aning mutolaasidin muyassardur" deb baho beradi, ya'ni uni o'qish natijasida Haqdan bo'lak barcha narsadan ozod bo'lishning eng yuksak darajasi hosil bo'ladi. J.Xolmo'minovning yozishicha: "Sh.R." Jomiyning nafaqat vahdat ul-vujud mavzusidagi she'rlarini, balki uning ilmiy-nazariy yo'nalishdagi falsafiy-irfoniy merosini o'rganishda ham eng yaxshi ochqich hisoblanadi. Chunki bu asarda Jomiyning barcha falsafiy-irfoniy qarashlari, vahdat ul-vujudiy talqinlari, mazhabiy mavqeyi va naqshbandiyona kayfiyati jamuljam shaklda, go'zal va mo'jaz bir uslubda o'z ifodasini topgan". "Sh.R." Jomiyning eng ko'p ko'chirilgan asarlaridan bo'lib, jahon kutubxonalari va ilmiy markazlarida uning yuzlab qo'lyozma nusxalari saqlanadi. Shundan 14 tasi O'zbekistonda – O'zR FAShIda saqlanadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хамсат ул-мутаҳаййирин. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Холмўминов Ж. Жомий ва ваҳдат ул-вужуд таълимоти. – Т., 2008.*

E.O.

"SHARHI "FUSUS UL-HIKAM" ("Fusul ul-hikam" sharhi") – Abdurahmon Jomiyning Shayx Muhyiddin Arabiyning "Fusul ul-hikam" asariga bitgan sharhi. U mazkur asarga yozilgan mashhur sharhlardan hisoblanadi. Ma'lumki, "Fusus ul-hikam" ramz-u majozlar vositasida nihoyatda murakkab til va uslubda yozilganligi tufayli XIII asrdayoq unga sharh yozish ehtiyoji paydo bo'lgan. Bu ishga ilk bor Ibn Arabiyning shogirdi, mashhur tasavvuf olimi Sadriddin Ko'niyaviy qo'l urgan va asar uning sharhi b-n birga o'qitilgan. Tasavvuf ahlida katta qiziqish uyg'otgan bu asarga sharh yozish XVI asrgacha davom etib, unga oxirgi sharhlardan birini Jomiy yozgan. Asarga 35 tadan 120 tagacha sharh yozilganligi aytiladi. Jumladan, Mavlono Kamoliddin Husayniy va Xoja Muhammad Porso kabi vatandoshlarimiz ham sharh bitishgan. Jomiy "Sh.F.H." orqali vahdat ul-vujud falsafasini tavhid asosida, Imom Hanifa mazhabi, Imom Moturidiyning aqidaviy ta'limoti asosida talqin qilib, Ibn Arabiy qarashlarini targ'ib qiladi va uni naqshbandiya ta'limoti b-n bog'laydi. J.Xolmo'minovning fikricha, "naqshbandiylik ta'limotida vahdat ul-vujud g'oyalariga keng yo'l ochib bergan asosiy omil Mavlono Jomiyning irfoniy asarlari va birinchi navbatda uning falsafiy-irfoniy sharhnomalaridir. Bular orasida Jomiyning "Sh.F.H." nomli sharhi alohida o'rin tutadi". O'z asarlarida vahdat ul-vujud g'oyasini ilgari surgan N. ham ustozi va do'sti Abdurahmon Jomiyning mazkur sharhidan yaxshi xabardor bo'lgan.

Ad.: *Холмўминов Ж. Жомий ва ваҳдат ул-вужуд таълимоти. – Т., 2008.*

E.O.

SHATH (SHATAHOT) – "harakat", "to'lib-toshish" ma'nolarini anglatadi. Sh. tasavvufiy

istiloh bo‘lib, so‘fiylarning ma’naviy hollarida zohiran qaraganda tushunib bo‘lmaydigan, shariatga qarshiday tuyulgan, botinan esa Allohga bo‘lgan shiddatli sevgining izhori sifatida aytgan so‘zlaridir. Bu tasavvufdagi sakr va sahv holi b-n ham bevosita aloqador. Sakr almashib turuvchi hollar, turli Sh.lar aytiladigan lahzalarni bildiradi. Solik ishq sharobi va mushohada mayini ichgachgina, sakr holiga tushgan. Bu hol qanchalar oshsa, Allohga yaqinlik ham shuncha ziyoda bo‘ladi. Va mana shunday hollardagina Sh.lar aytiladi. Ilohiy ishq behushligida aytiladigan Sh.lar qabul qilinmagan, xoslar ham sirni oshkor qilganlik u-n jazba sohiblarini qoralaganlar, ko‘ngil sirini ochganlar jazolangan. N. shunday ma’lumot beradi: “Shayx Najibuddin debdurki, Shayx Jamoluddin Lur (q.t.s.) doyim shathiyot aytur erdi. Ulamo va sulaho aning inkorig‘a qo‘ptilar va takfir qildilar. Va aning qatlig‘a fatvo qilib, Otabek Abubakrki, shahrning podshohi erdi, qoshig‘a elttilar va qatl ijozati tiladilar. Otabek dediki, agar ikki kishi ham sizga muttafiq bo‘lsalar, qatl qilay! Biri Shayx Najibuddin Ali Buzg‘ush, yana biri Shayx Mu’inuddinki, ham Sherozning buzurgi ermish. Ul fatvoni mening qoshimg‘a kelturdilar. Men bitidimki, ul majzubdur va mag‘lub, aning qatli joyiz emas. Va Shayx Mu’inuddin ham andoq o‘q bitib erdi. Otabek aning qatlig‘a hukm qilmadi”.

Tasavvuf ahllaridan ba’zilari Sh.lari b-n mashhur va bu sakr holida aytgan so‘zlari orqali Mansur Xalloj, Nasimiylar kabi qattiq jazolanganlar. N. “N.M.” tazkirasida ham valiylarning Sh.laridan keltirish barobarida shathiyotda mashhur zotlarni ta’kidlaydi: “Ja’far b. Muhammad b. Nusayr Xuldiy Xavvos (r.t.) debdurki, Iroqning ajoyibi uch nimadur; Shibliyning shathi va Murta’ishning nuktasi va mening hikoyotim”.

Kubraviya tariqati vakili Majdiddin Bag‘dodiy Sh.lar aytiladigan holni shunday izohlagan: “Zohir olamidagi “Bu mening Robbimdir” ofiyati malakut olamida “Anal-Haq” sirriga aylanadi. Bu ibtido bo‘lib, unda hali xomlik, qusur bordir. Shu bois beixtiyor “Anal-Haq” va “Subhoniy” kabi imtihonlar o‘rtaga chiqadi. Va bular hulul shubhasini tug‘diradi. Solik bu holdan hazrati Muhammad yo‘lini izlab va uning pok ruhidan madad tilab, shubhalardan qutuladi. Natijada, borlikdan yo‘qlikka odim tashlarkan, Allohning nuri ila ubudiyatdagi nuqsonini ko‘radi va undagi iftixor va ehtiyojini ham idrok etadi. Va “Anal-Haq” emas, “Anal-Turob” (Men tuproqman) deyishni boshlaydi”. Albatta, sir maqomiga ko‘tarilgan Haq yo‘lchisi o‘zining holiga sohib bo‘lishi, uni oshkor qilmasligi lozim. Chunki avom uchun uning zarari juda kattadir. Hujjat ul-islom Imom G‘azzoliy Sh.larning avom xalqqa zarari haqida to‘xtalib, shunday deydi: “...Abu Yazid Bistomiyning “Subhoniy, Subhoniy”, ya’ni “men ayb-nuqsondan pokman” degan so‘zlarini keltiradilar. Hatto bir guruh dehqonlar o‘zlarining dehqonchiliklarini tark etib, shu kabi da’volarni izhor qila boshlashdi. Chunki bunday so‘zlar inson nafsiga lazzat beradi. Zero, bu kabi so‘zlardan kishi o‘zini buyuk maqomlarga erishgan deb hisoblab, nafsni poklash amallaridan chekinadi... Ammo Abu Yazid Bistomiydan keltirilgan yuqoridagi rivoyat sahih emasdir. Agar uni u kishidan aniq eshitishgan bo‘lsa, u zot Alloh taoloning so‘zini takrorlab turgan paytida eshitgan bo‘lishlari mumkin. U kishining “Darhaqiqat, Men – Allohdirman! Mendan o‘zga iloh yo‘q! Bas, Mengagina ibodat qil (Toho: 20/14)” deyayotganlarini eshitishgandir. Bunda u zotning faqat hikoya qilib aytayotganlarini tushunish lozim. Tasavvuf arboblarining qariyb barchasi bu mavzuga maxsus to‘xtalishgan. Jumladan, Najmiddin Doya ham “Solik bu yo‘lda ba’zi ruhoniy maqomlarga erishadiki, bashariy sifatidan, suv va tuproq libosidan chiqadi, mujarrad holga keladi. Haq sifatlari zuhurining nurlari unga etishadilar. Butun ruhoniy sifat va nurlar solikka tajalli etadi. Bu maqomda ko‘ngil oynasi soflashganligi va ruh tajallisining aksini qabul etadigan holga kelganligi u-n o‘ziga “Men Haqman” va “Na qadar shonliman” zavqini topadi. Shunda “Kamolotga erishdim”degan xayol va g‘ururni paydo qiladi. Bu holda aqlining quvvati, vahmi va tushunchasi

hech kim anbiyo va avliyodan ustun bo‘lolmasligini idrok qilolmay qoladi. Bunday bir tahlika chog‘ida agar Haq lutfining tasarrufi qo‘lidan tutmasa, imonidan ajralish xavfi bor. Bu maqomda hushu va ittihod ofati ham kutiladi”.

Ammo irfoniy adabiyotda Sh.lar muhim ahamiyatga ega. Ularning izoh va sharhlari uchun maxsus tadqiqlar olib borilgan. Zero ularning haqiqiy ma’nosini anglash mushohada kengligiga, muroqabaga olib keladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тасаввуф ҳақида тасаввур. – Т., 2002; Ғаззолий. Иҳёу улумиддин. – Т., 2014; Gökbulut S. Mecdüddin Bağdadı ve tasavvufi görüşleri. – Ankara: İlahiyat yayinevi, 2019; Najmiddin-i Daye. Sufillerin seyri. – Istanbul, 2013.*

Z.R.

“SHAH LUTFI GARCHI BO‘LSA KO‘P QOBIL, TOPAR NASH’U NAMO...” – N.ning “B.V.” devonidan o‘rin olgan qit’asi:

Shah lutfi garchi bo‘lsa ko‘p qobil,
topar nash’u namo,
Bevajhdur, bu nuktaga har kimsakim diqqat tutar.
Garchi quyoshtin parvarish olam yuziga omdir,
Sahroda qumg‘og‘-u tikan,
bo‘stonda sarv-u gul butar.

Shayx Sa’diyning “Guliston” asaridagi hikoyatlardan biri mana bunday mazmunga ega: qaysidir podshoh o‘g‘lini bir olim tarbiyasiga topshirib: “Bu sening farzanding, o‘z o‘g‘ullaringning biriday uni tarbiyala, unga ta’lim o‘rgat!” – deydi. Olim shahzodani zahmat chekib bir necha yillar davomida o‘qitib, o‘rgatibdi. Lekin mehnatlari zoye ketib, shohning o‘g‘lidan odam chiqmabdi. O‘z bolalari esa ilm-fan, fazl-u odobda kamolotga yetishishibdi. Bundan ogoh bo‘lgan podshoh olimni koyib: “Sen ahdingni buzib, va’daga vafo qilmading”, debdi. Shunda olim: “Ey malik, tarbiyaning rasm-u qoidasi bir yo‘sinda bo‘lur va lekin iste’dod turlicha erur”, degan ekan. Yuqoridagi qit’ada aksini topgan falsafiy ma’no ham Shayx Sa’diy hikoyatidagi olimning hukmiga yaqin. Mamlakat hukmdori barchaga bab-barobar yaxshilik marhamat ko‘rsatdi, deylik. Bu lutfdan hamma ham teng bahramand bo‘la oladimi? “Ha”, deyish uchun isbot kerak. Hazrat N. ikkinchi satrdayoq bunday fikrga diqqat etish dalilsizligini ta’kidlab, bosh maqsadni tamsil orqali isbotlaydilar:

Garchi quyoshtin parvarish olam yuziga omdir,
Sahroda qumg‘og‘-u tikan,
bo‘stonda sarv-u gul butar.

Ya’ni: quyosh olam yuziga teng nur sochsa ham, sahroda qumg‘og‘-u tikan, bo‘stonda sarv-u gul bitadi. Abdulla Qahhor: “Bu juda chuqur, juda zo‘r gap, do‘ppini yerga qo‘yib, xo‘p o‘ylab ko‘radigan gap”, degan edi. Haqiqatda shunday. Odamning bag‘ri cho‘lga o‘xshab qaqrab, ruhan huvillab yotsa yoki tabiat ato etgan qobiliyatdan mahrum bo‘lsa, unga marhamat ko‘rsatilib, sharoit yaratilmasin, u baribir noshudligicha qoladi. Buning aksi o‘laroq iste’dodli kishilar har qanday qarshilikni yengib bo‘lsa-da, o‘z maqsad va ko‘zlangan orzulariga erishib, el-yurtga manfaat yetkaza oladilar.

Ad.: *Алишер Навоий. Бадое ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик, 3-жилд. – Т., 2011; Ҳаққул И. Касби камол ўзни танишдир. – Т., 2021.*

I.H.

“SHAHARDA OLIB SOTQUVCHILAR” – “M.Q.”ning yigirma yettinchi fasl nomi. Unda shahar savdogarlari toifasiga xos ayrim illatlar: sifatsiz molni ko‘kka ko‘tarib maqtashi, arzon olib, qimmat sotishga urinishi, ulardagi insofsizlik, chayqovchilik, yolg‘on ont ichish, hiylagarlik haqida bayon qilingan. N. “Shahr savdogari g‘adrkish o‘ziga sud va musulmonlarg‘a qahtandish. Elga ziyon aning sudi, o‘ng‘oy olib og‘ir

sotmoq aning maqsudi. Olurda katonni bo‘z deb, sotarda bo‘z vasfida katondin ortug‘ yuz so‘z deb. Sholni to‘rqa o‘rnig‘a o‘tkara olur bo‘lsa, ta’sir yo‘q, bo‘ryoni zarbaft yerida sota olur bo‘lsa, taqsir yo‘q. Do‘konida barcha mato’ mavjud, g‘ayri insof. Noinsoflig‘idin barcha jins hosil g‘ayri taqsirg‘a e’tirof. Tojiri musofir ul kadbonug‘a hamzonu, balki ani cherikchi desa bo‘lur, muni kadbonu. Anga sud – olg‘uvchig‘a nuqsoni mol, ikki jonibdin yolg‘on ont ichguvchi dallol”, – deya fikrini ushbu bayt bilan xulosalaydi:

Bu xayl odam emaslar, yaxshi boqsang,
Erur suding alardan gar yiroqsan.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

E.Q.

SHAHD TOG‘I – “S.I.” dostonida tasvirlangan tog‘. Dostonning qirq uchinchi bobida Hind royi (hukmdori) Iskandarga itoat etgandan so‘ng uni mehmon qilgani va Iskandar qish faslini u yerda o‘tkazgani hikoya qilinadi. Roy Iskandarning dam olishi u-n Beshai Nigor degan joyni tanlagan. Sh.T. ana shu joyning g‘arb tomonida joylashgani mazkur bobda qayd etilgan. Dostonda ushbu tog‘ning go‘zal tasviri berilgan. Muallif unda qishin-yozin ochilib turuvchi gul va rayhonlarni, buloqlar va ko‘llarni, tog‘da yashovchi xayvonlarni tilga oladi hamda “shahd” so‘zidan foydalanib, badiiy yuksak misralar yaratadi:

Qish-u yoz maml-u rayohin anga,
Kelib nahlayi shahd gulchin anga.

Kishi qaysi toshe sorikim boqib,
Aning shahdi bir chashma suvdek oqib.

Kiyik xayli bu tog‘ uzra ming gala,
Gul-u shahd arosida bori yala.

Sh.T. dostonning qirq yettinchi bobida ham tilga olingan. Iskandar butun qish davomida Beshayi nigorda dam oladi, ovga chiqadi, sayr qiladi, shu jumladan, Sh.T.ga chiqib may ichadi:

Gahi Shahd tog‘ig‘a aylab uruj,
Quyosh, o‘ylakim, qilsa mayli buruj.

Chu may birla tog‘ uzra xushhol o‘lub,
Hamul shahddin forig‘ulbol o‘lub.

Sh.T. b-n bog‘liq tasvirlar bob mazmunida muayyan o‘rin egallaydi va muallifning badiiy niyatini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Хасанов С. Навоийнинг етти туҳфаси. – Т., 1991.*

Q.E.

SHAHID – arabcha so‘z bo‘lib, guvoh ma’nosidadir. Islom olamida ulug‘ maqomlardann biri. Dini uchun, ya’ni Alloh taolo uchun, or-nomus, e’tiqod, g‘urur, oila, Vatani uchun halok bo‘lganlar Sh.dir. Sh.lar yuvilmasdan dafn etiladi. Islom tarixida ilk shahid mashhur sahoba Ammor Yosirning onasi Sumayyadir. Rasululloh (s.a.v)ning shahidlik maqomi kimlarga berilashi haqida ko‘plab hadislari mavjud: “Ummatimning shahidlari oz bo‘ladi. Alloh yo‘lida yurganda o‘ldirilgan kimsa shahiddir; inson o‘z to‘shagida Alloh yo‘lida yotganida o‘lsa shahiddir; qorin og‘ri bilan vafot etgan kimsa shahiddir; chayon yoki ilon chaqqanidan o‘lgan kimsa shahiddir; suvga g‘arq bo‘lib o‘lgan kishi shahiddir; yirtqich hayvon tishlaganidan o‘lgan kishi shahiddir; vayrona ostida qolib jon bergan kimsa shahiddir; tug‘ayotganda o‘lgan ayol shahiddir”. Ammo ayrim hadislarda ularning sanadi boshqacha keladi. Badiiy adabiyotda esa aksariyat ishq shahidlaridan bahs yuritiladi. Sulaymon Uludog‘ “Tasavvuf terminlari lug‘ati”da Sh.larni: “Haq yo‘lda Haq uchun Haq sevgi bilan jon bergan, tajalli nuri bilan hayotdan ko‘zlarini yumgan oshiq”, – deya izohlaydi. Bunday oshiqlar Allohning xos qullari – valiy zotlardir. Shuning uchun “N.M”da yuksak martaba shahidlik haqida

Sayyid Kamoluddin Muhammadning bir baqqol o‘limi haqidagi taassurotlari xabar beradi: “Ko‘rdumki, birav tog‘din inib keldi qushdek ta’jil bila. Va dedi: ey Umar, ilgari borki, namoz qilali! Ilgari bordim, namoz qilurda ko‘rdum, bizing bila osmon orasida yashil va oq qushlar namoz qiladurlar. Chun namozdin forig‘ bo‘lduk, bir azimulxilqa yashil qush ul qushlar orasidin indi va tobut qoshida o‘lturdi va tobutni yutti va uchub o‘zga qushlarg‘a qo‘shuldi. Va tasbeh o‘quy borurlar erdi, to nazardin g‘oyib bo‘ldilar. Men mutaajjib bo‘ldum. Ul kishi dedi: “Ey Umar, eshitmaganmisan, shahidlar ruhi jannatning xohlagan yerida sayr qiladigan yashil qushlar ichida bo‘ladi. Bular qilichdan shahid bo‘lganlar. Ammo muhabbat Sh. larining jasadlari ham, ruhlari ham yashil qushlar ichida bo‘ladi. Bu kishi ulardandir, ey Umar!”.

N. lirikasida ham Sh.i ishq oshiqlar obrazi yaratilgan. “F.K.” devonidagi bir g‘azalda ishq Sh.i hol-u martabasi izohlanadi:

Loladek qonliq libosim birla dafn aylang meni,
Kim shahidi ishq ma’hudi kafang‘a kirmadi.

“B.B”da esa:

Qon emaskim yopti gulgun hulla jannat xozini,
Ishqmu tanni shahid aylarda uryon aylagach?

Sh.lik maqomi, Sh.larning oxiratdagi martabasi haqidagi oyat va hadislarni mushohada qilgan insonlarda Sh. bo‘lish orzusi paydo bo‘lgan. Termiziy hadislariga ko‘ra, Jobir roziyallohu anhu shunday rivoyat qiladi: “Nabiy sollalloh-u alayhi vasallam: “Kimni yer yuzida yurgan shahidga nazar solish xursand qilsa, Tolha ibn Ubaydullohga nazar solsin”, dedilar”. Demak, tirikligidayoq Tolha ibn Ubaydulloh shahidligi va jannat ahllaridan ekanligi haqida xabar berilib, sahobalar orasida yanada Sh.likka muhabbat kuchaytirilgan. N. ham bir baytida shunday armon qilgan:

Tilar ko‘nglum o‘zin ishqing shahidi,
Ki bor ul g‘amzayi fattong‘a muhtoj.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 2005.*

Z.R.

SHAHIDIY QUMIY (t.y.n., Qum – 1529, Hindiston (Gujarot) – shoir. O‘z davrining yaxshi tahsil olgan fozil kishisi va zabardast shoiri bo‘lgan. Hirotga 2 marta kelgan. Bu yerda Abdurahmon Jomiy b-n hamsuhbat bo‘lar edi. Bir yilcha Qazvinda yashagan. Gilon sultoni Mirzo Ali bu shaharga kelganda, shoirga ancha tilla pul in’om qilgan. U esa bu pullarni uyining bir burchiga to‘kib qo‘ygan. Yaqinlari va do‘stlaridan kimda zarurat bo‘lsa, olib sarf qilaverar ekan. Shoirda mol-dunyoga qiziqish bo‘lmagani u-n uni devona deganlar. Bir muddat Sulton Ya’qubbek b-n musohib bo‘lgan. O‘z davri hukmdorlaridan birining saroyida malik ush-shuaro ham bo‘lgan. Homiysi vafotidan keyin Gujarotga ketgan.

Tazkira va bayozlar orqali yetib kelgan she’rlariga qaraganda, u ko‘proq g‘azallar yozgan. G‘azallari asosan ishq mavzusida bo‘lib, odob-axloq va o‘z hasbi holi b-n bog‘liq fikrlarini ham ularning qatiga singdirib yuborgan. 4 ming bayt atrofidagi she’rlarini o‘z ichiga olgan devoni bizgacha yetib kelgan bo‘lib, Tehrondagi Adabiyot institutida saqlanadi. N. “M.N.” tazkirasida: “Badihasi ravondur va taassubi g‘olib va tab’i hazlg‘a ko‘p rog‘ibdur” deb uni ta’riflaydi va “yaxshi voqe’ bo‘lubtur” deb quyidagi matla’sini keltiradi:

Biyo, ey ishq, otash zan dili afsurdayi moro,
Ba nuri xesh ravshan kun charog‘i murdayi moro.

Tarj.: Kel, ey ishq, bizning so‘ngan ko‘nglimizga o‘t sol, o‘z nuring bilan o‘chgan chirog‘imizni yondir.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011;*

Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 3. – Душанбе, 2004.

E.O.

“SHAHNA, ZINDONIYLAR VA ASASLAR” – “M.Q”ning avvalgi qism, 30-fasli “Shahna va zindoniylar va asaslar zikrida” deb nomlangan bo‘lib, N. o‘zi yashagan davrdagi ijtimoiy-siyosiy tabaqa vakillaridan shahna – qo‘riqchi, soqchi, kunduzgi posbon; zindoniy – mahbus; asas – mirshab, qadimgi shaharlarni qo‘riqlovchi tungi soqchilarning ahvol-ruhiyati, tabiati va kundalik turmushda jamiyat uchun foyda-zararlari haqida lo‘nda matnda tavsif beradi. Zero, zikri kelgan jamoalarni mutafakkir keskin fosh etgani ko‘rinadi. Dorug‘a, shahna va asaslarning vazifasi shaharda tartib saqlovchi ma’mur bo‘lsalar-da, ular zimmalariga yuklangan mas’uliyatini ado etishda kamchilikka yo‘l qo‘yishlari, xususan, o‘g‘ri va ashaddiy kallakesarlarning jinoyatlariga ko‘mak berib, sheriklik qilishlarini qattiq qoralaydi. Shuningdek, N. zindonni do‘zaxga qiyos bilib, asas va shahnalarni azob farishatlari va do‘zax moliklariga mengzaydi. Ularning zolimligi shu qadarki, u yerga tushgan gunohkorlarning bo‘yinlariga xalqalar tizmasi, qo‘l-oyoqlariga esa qatma-qat zanjirlar urib, bandi qilishgan. Kisavur va qimorbozlar mirshablardan hech hayiqmay, bozor va qimorxonalarni ijaraga olgan kabi foydalanishadi. N. zindonni mahshar maydoniga o‘xshatib, fasl so‘nggida keltirilgan baytda Tangridan ranj-u uqubat, dard-u mashaqqat manzilidan xalos qilishini so‘raydi:

Bir manzil erur anda base ranj-u uqubat.
Tushgan kishiga anda o‘kush dard-u suubat.
Vale ul haram ichra bo‘lg‘ong‘a xos,
Umid ulki ham tengri bergay xalos.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд.– Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. Ўгирувчи: Баҳодир Қобул. – Т., 2021.*

Q.E.

“SHAHNAYI XUROSON” – unvon. Muhammad Aslan Tusiyning mashhur unvoni. Uning bu unvoni haqida N. “N.M.”da “Ani Shahnai Xuroson bitibdurlar” deb yozadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

B.R.

“SHAHNING AF’OLI...” – N.ning “G‘.S.” devoniga kiritilgan qit’asi:

Shahning af’oli etar xayli sipohig‘a asar,
Chun nabi dediki, “annosu alo dini mulk”,
Hukamo ham dedilar shahni tengiz, xayli ariq,
Ul achchig‘dur, bu achchig‘ ul
chuchuk o‘lsa, bu chuchuk.

Shohning fe’l-u harakatlari uning atrofidagilar – amaldor va xizmatkorlariga ta’sir o‘tkazadi. Bu – hazrat N. o‘rtaga tashlagan fikr. U kishi buni tasdiqlash uchun bitta hadis keltiradilar. Buning ma’nosi shuki: “Shohning e’tiqodi qanday bo‘lsa, odamlariniki ham o‘shandaydir”. Ikkinchi dalil sifatida u qadimgi yunon allomalarining hikmatlariga murojaat etilgan:

Hukamo ham dedilar shahni tengiz, hayli ariq,
Ul achchig‘dur, bu achchig‘
ul chuchuk o‘lsa, bu chuchuk.

Yosh n.shunoslardan birining aniqlashicha, shoir bunda Arastu so‘zlaridan foydalangan bo‘lib, ular shoirning “T.A.H.” asarida keltirilgan ekan. N. yozadilar: “Aristotolis Aflotunning shogirdidir. Iskandarning vaziri erdi. Aning so‘zlaridin budurkim, podshoh uluq rudga o‘xshar va atboyi (fuqarolari) arig‘largakim, rud suyiga har hol bo‘lsa, arig‘lar suyiga hamul holdur. Ul chuchuk bo‘lsa, bular chuchuk, ul achig‘ bo‘lsa, bular achiq, ul sof bo‘lsa, bular sof, ul loy bo‘lsa, bular loy. Bas, podshohga vojibdur g‘oyat hikmat va e’tidol (mu’tadillik) bila maosh qilmoq (umr kechirmoq) to xayl va hashami mutobaat qilg‘aylar.

She’r:

Shoh daryo va xalq erur anhor,
Ikkisining suyiga bir maza bor”.

Arastu tomonidan sodda, lekin ulug‘ fikr bayon qilingan. Shoh adolat daryosi bo‘lsa, mamlakatda adolat irmoqlari to‘lqinlanib oqadi. Bu “daryo”ning suvi sho‘r yoki taxir, ya’ni podshoh zolim va diyonatsiz bo‘lsa, uning atrofidagi kishilar fe’l-atvorida shunday xususiyatlar, albatta, tarkib topadi.

Qit’ada ifodalangan g‘oya mohiyatan eskirmasdir. Bugun shohlar yo‘q. Ammo ming-minglab odamlarni boshqaradigan amaldorlar bor. Shuning u-n N.ning ushbu so‘zlaridan har bir mansabdor tegishli xulosa chiqarishi kerak. Chunki nodon va yomon fe’lli amaldorlardan qo‘lostidagilariga hech payt yaxshi fazilatlar yuqmaydi. Bu esa oqibat-natijada xalqqa ziyondir.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Ҳаққул И. Касби камол ўзни танишдир. – Т., 2021.*

I.H.

“SHAHO, EL JAVHARI JONIN CHIQORDING...” – N.ning “G‘.S.” devonidan o‘rin olgan qit’asi:

Shaho, el javhari jonin chiqarding,
Javohir hirsidin bedod etib fosh,
Chu ulgungdur ne osig‘ to‘kmak oni
Mazoring uzra andoqkim, ushoq tosh.

Boylikni sevgan shoh elini sevmaydi. U xalq molini talash hirsiga taslim bo‘lib, kambag‘alning ahvolini unutib, beva-bechoralarning o‘g‘rilardan qolgan narsalariga qo‘l cho‘zishdan ham hazar qilmaydi. Dur-u gavhar, tillo-yu kumushga o‘chlik jallodlikdan yomon. Jallod bosh kesadi. “Javohir sevar” sultonlar-chi? Ular N. iborasi bilan aytganda, “el javhari jonin” sug‘urib, so‘rib olishadi. Bu – dahshatli bedodlik. Bu zulm va zo‘ravonlikning ayovsiz tantanasi demakdir.

N.ning yigitlik davrlarida yaratilgan ushbu qit’ada go‘yo shoh va shoir yuzma-yuz kelganday. Shoirning podshohga murojaati – aybnoma mazmuniga ega. “Javohir hirsi”, “javhari jon” iboralari zulm-u istibdodning ham, mazlumlik va xonavayronlikning ham oxirgi chegaralargacha borib yetganligini aks ettiradi. Xo‘sh, boylik hirsi telbaligidan “el javhari jonin” chiqargan hukmdor oxir-oqibatda nimaga erishadi? U yiqqan javohirlarini narigi dunyoga orqalab ketolmaydi. Bular, nari borsa, uning yutoq nafsini kondirar. Ammo o‘limdan so‘ng ularning “ushoq tosh” misoli mozori uzra to‘kilishidan hech foyda yo‘q.

Chu o‘lgundur ne osig‘ to‘kmak oni
Mazoring uzra andoqkim, ushoq tosh, –

deyiladi shohga murojaat so‘ngida. Bu fikr faqat shohlargamas, mol-u dunyo yig‘uvchi, javohirparast har bir kishiga tegishli.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Ҳаққул И. Касби камол ўзни танишдир. – Т., 2021.*

I.H.

SHAHRIYOR – N. forsiyda 500 yaqin muammo yaratgan bo‘lib, ularda tarixiy-siyosiy, falsafiy-estetik, diniy-ma’rifiy sohalardagi muhim va qiziqarli jihatlar nihoyatda ustalik b-n qalamga olingan. “D.F.”dan joy olgan № 243-, № 245-raqamlardagi jumboqli baytlar “Shahriyor” ismiga bag‘ishlangan. Uning birinchisi ushbu satrlarda ifoda etilgan:

Ba kunji oqibat chun ovard ro‘y,
Dili mo chun mahi masnad zi har so‘y.

Tarj.: Oqibatning burchagiga qarasang, bizning dilimiz har tomondan oyga o‘xshagan taxtdir.

Berkitilgan so‘z misralardagi “oqibat”, “ovard”, “ro‘y” kalimalaridan izlanadi va uning

burchaklaridagi harflar birlashtirilsa, “Shahriyor” kelib chiqadi.

Navbatdagi ayni nomdagi muammo matni diqqat bilan o‘qilsa, unda an’anaviy oshiq obrazining ishq diyoridagi holi tasvir etilgan:

Shahriyore, ki dilozori man ast,
Ham shah-u ham mah-u ham yori man ast.

Tarj.: U mening dilzoro go‘zalim, Menga ham shoh, ham oy, ham qamardir.

Ushbu muammo tansis va taxsis hamda talmeh qoidasi b-n yechiladi va unda dilozor go‘zalning ta’rifi beriladi. Ikinchi misrada ishora b-n nomning qismlari oshkor qilingan bo‘lib, *“shah” – ﺵﻩ so‘ziga “oy”-“qamar” dan talmeh qoidasiga asosan re – qo‘shilsa va unga “yor- so‘zi tarkib topsa, “Shahriyor” – ﺭﺍﯼﺭﻩﺵ hosil bo‘ladi.* Bu muammoni Xondamir ham “Makorim ul-axloq”da misol sifatida ko‘rsatib o‘tgan.

Keltirilgan muammo vazniy belgilari, poetik go‘zalligi b-n ham betakrorligi shubhasiz. “*Dilozori – yori*” lafzlaridagi tovush uyg‘unliklari, “Shahriyor” so‘zining o‘zagidan keyingi misrada “shah”ni takror ishlatish orqali yashirilgan so‘zga ham ishora, ham bayt mazmunini chuqurlashtirish uchun istifoda etilgan. Bunday mohirona ifoda uslubi N.ning fors tili va she’riyatini yuksak maqomda egallaganidan dalolat beradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Девони Фоний. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Т., 1967; Зоҳидов Л. Алишер Навоий ижодида муаммо жанри / Масъул муҳаррир: Эркинов С. – Т., 1986.*

S.R.

“SHAHRIYORE BOR EDI SHAHLARG‘A SHOH...” – “L.T.”da qushlardan birining Hudhudga “izlab borayotgan podshohimizga maqbul bo‘ladigan qanday tuhfa (sovg‘a) olib borishimiz lozim?” deb bergan savoliga Hudhud: “uning qaramog‘ida dil mashaqqati va otashidan bo‘lak barcha narsa muhayyo”, deya qaytargan javobidan so‘ng keltirilgan hikoyatning birinchi misrasi. Bu hikoyat Attorda keltirilmagan. U hajm jihatidan “Shayx San’on”dan keyin turadi. Hikoyat 81 baytdan iborat. Unda hikoya qilinishicha, buyuk bir shahanshohning g‘oyatda go‘zal bir o‘g‘li bo‘lgan ekan. Shoh uni el-yurt ko‘zidan yiroq tutib, shahzodani maxsus bog‘ va qasrda asrabdi. Vaqti kelib shahanshoh olamdan o‘tibdi. Uning o‘rniga shoh ko‘tarilgan shahzoda kunlardan birida chavgon o‘ynashga chiqibdi. Uni ko‘rgan barcha xaloyiq “devona-yu zor”, “ishq domiga giriftor” bo‘libdi va unga ergashib, uning qasr-u bog‘ini qurshab olishibdi. Bu holatdan g‘azablangan podshoh:

Kim: – “Bu g‘avg‘o ahlini haryon surung,
Ketmaganlarni jazog‘a yetkurung!..” –

deb farmon beribdi. Biroq hech kim o‘z joyidan jilmabdi. Hayratda qolgan podshoh “Kimki o‘z mutaxassisligi bo‘yicha menga manzur bo‘ladigan narsa yaratib kelsa, o‘sha odamni mulozim qilib olaman, agar ma’qul bo‘lmasa, boshidan judo qilaman”, deb jar soldiribdi. Barcha el va “ahli fazl-u ilm”, “shoir”, “munshi”, “zargar”, “jomabof”, “najjor”(duradgor) va boshqa kishilar ishga tushibdi.

Bir kecha shoh “bir-iki mahram nadimi” bilan mirshab kiyimida el qilayotgan ishlarni kuzatishga chiqibdi. Hamma antiqa narsa yaratish b-n band emish. Biroq u narsalar podshohga manzur bo‘lmabdi. U (podshoh) aylanib, biror ish bilan shug‘ullanmay, faqat oh-nola chekayotgan “bir g‘aribi zor” kulbasiga kiribdi. U bechora “*Mangakim yo‘q tuhfai juz (boshqa) oh-u dard*” deya qon yig‘layotgan ekan. Uning bu holati podshohga qattiq ta’sir qilib, musofirning oldiga kiribdi va suhbat qilibdi.

Y.E.Bertelsga ko‘ra, bu hikoyat fors adabiyotidagi turli tarqoq motiv va mazmunlar asosida to‘qilgan bo‘lib, o‘ziga xos originallik va ta’sirchanlikka ega. Bu hikoyatning boshqa hikoyatlardan yana bir farqi shundaki, unda N.ning faqat fors tilida yozilgan asarlarida ishlatiladigan

Foniy taxallusi (doston oxirida ishlatganidan tashqari) berilgan. Bu hikoyatda “shoh, ranj, mashaqqat chekish” yo‘li b-n asl maqsadga erishish mumkin, degan so‘fiyona g‘oya ilgari surilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Бертельс Е.Э. Избранние труды. Суфизм и суфийская литература. – М., 1965.*

S.O‘.

SHAHRISABZ – Samarqandning janub tomonida joylashgan Markaziy Osiyoning qadimiy shaharlaridan biri. Dastlab, Kesh, Kash deb atalgan Sh. hozirgi Qashqadaryo viloyatining tuman markazi bo‘lib, o‘tgan ming yilliklarda Samarqand – poytaxt shaharning eng yirik kentlaridan biri bo‘lgan.

Shahrisabz yashil shahar demakdir. Shuning uchun ham N. o‘zining “S.S.” dostonida dushanba kuni Oy sayyorasining rangiga mos yashil qasrda mehmon bo‘lib turgan shoh Bahrom huzuriga kirgan 3-iqlim yo‘lidan kelgan sayyoh hikoyatini maxsus Sh. shahriga bog‘lagan. Unda shoir Sh.ni asar personajlari tilidan shunday tariflaydi:

Dedilar: Kishvari durur dilkash,
Oti ham Shahrisabz erur, ham Kash.

Xizr monand sabzadin rangi
Sabzasi suyi ko‘zgusi rangi.

Misralardagi Sh. haqidagi yorqin tasvirlar 1465–69-yy.da Samarqanddan yashagan N. bu shaharni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan bo‘lishi mumkinligiga ishora etadi.

Musofir hikoyatni yakunlab, o‘zining Sh.dan, Sa’d avlodlaridan biri ekanligini ma’lum qilgach, shoh Bahrom uni Sh.ga voliy etib tayinlaydi:

N. “M.N.” tazkirasining oltinchi majlisida Abulbaraka degan kishining Shahrisabzda bir qancha vaqt qozlik qilgani haqida xabar beradi. Shuningdek, U “N.M.” tazkirasida yozishicha, Keshlig‘ ato va Umar atolar Kesh shahridan bo‘lgan. Ma’lum bo‘ladiki, Sh. qadimda Kesh deb ham yuritilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

S.R.

“SHAHG‘A MUQARRAB O‘LSA BIROV BARCHA XAYLDIN...” – N.ning “G‘.S.” devoniga kiritilgan qit’asi:

Shahg‘a muqarrab o‘lsa birov barcha xayldin,
El barcha dushman o‘lsa aning birla vajxibor.

Kim xayl-u shoh oshiq-u ma’shuqu erur yaqin,
Gulchehrayeki, oshiq anga bo‘lsa beshumor.

Ul barchasidin o‘lsa birisiga multafit,
Dushman bo‘lurda o‘zgalarga ne ixtiyor.

Dushmanlik xilma-xil bo‘ladi. Qit’ada shulardan biri xususida so‘zlangan. Aslida ma’shuqa uchun oshiqlar o‘rtasidagi g‘animlik azal-azaldan ma’lum. Hazrat N. shu ravshan haqiqatga tayanib, boshqa bir ziddiyatning mohiyatini ochganlar. Shoh – davlat tepasidagi yagona shaxs. Boshqa hech kim undan baland mavqeda turolmaydi. Uning atrofidagilar ko‘pchilik. Ulardan biri hukmdorga “muqarrab”, ya’ni juda yaqin bo‘lsa, qolganlar – “barcha dushman o‘lsa aning birla vajhi bor”.

Kim xaylushoh oshiq-u ma’shuq erur yaqin,
Gulchehrayeki, oshiq anga bo‘lsa beshumor.

Shuning uchun shoh kimniki o‘ziga yaqin olib, unga iltifot ko‘rsatsa, “dushman bo‘lurda o‘zgalarga” hech ixtiyor qolmaydi. Bunday dushmanlikning turgan-bitgani ziyon va razolat.

Boshliq va hokimlarga muqarrablik tufayli paydo bo‘ladigan adovat hamda ularning zararli oqibatlari hamon davom qilayotirki, N.ning so‘zlari bu hodisalarning ichki qatlamlarini anglashga xizmat etadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Ҳаққул И. Касби камол ўзни танишдир. – Т., 2021.*

I.H.

SHAHRISABZIY YORMUHAMMAD QARRO

U hofizi Qur’on, mudarris, Buxoro xattotlik maktabining namoyandalaridan. Xushovoz bo‘lgani uchun “Qarro” laqabini olgan. 7 qalam (yetti xil xat turi), xususan, Movarounnahr nasta’liq xatini chiroyli yozgan. XIX asrning birinchi yarmida xattotlik faoliyatining asosiy qismini qo‘lyozma asarlarni kitobat qilish b-n o‘tkazgan. N.ning bir nechta asarlarini ko‘chirgan: “Xamsa” (SamDU asosiy kutubxonasi. Inv. 1008817. varaq. 1229/1814; O‘zR FAShI. Inv. № 3592. 354 varaq. 1237/1822 y.; O‘zR FAShI. Inv. № 13242. 289 varaq. 1248-49/1833-34 yy.); “Mahbub ul-qulub” (O‘zR FAShI. Inv. № 5024/3. 40 varaq, nafis nasta’liq xat, 1233/1817-18; O‘zR FAShI. Inv. № 3592. 354 varaq. 1237/1822); “Lison uttayr” (O‘ZR FAShI. Inv. № 3592. 354 varaq. 1237/1822). Qo‘lyozmalarning aksari Shahrisabzda kitobat qilingan, chiroyli xafiy (kichik) nasta’liq xatida bitilgani bilan o‘ziga xosdir.

Ad.: *Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. – Т., 1991; Собрание восточных рукописей академии наук Узбекистан. VII. – Т., 1964.*

Muh.A.

SHAHRISABZIY MUHAMMADYUNUS IBN BOBOJON – U XIX asrning ikkinchi yarmida Toshkentda yashagan mohir xattot. U N.ning “X.”si va “M.Q.” asarini 1289/1872-73-y.da Toshkentda kitobat qilgan. Bu qo‘lyozma O‘zR FAShI. da inv. 9350 raqam ostida saqlanmoqda. Xattot N. ning terma devonini ham chiroyli nasta’liq xatida 1296/1879-y.da kitobat qilgan. Bu qo‘lyozma ham inv. № 1238 raqam bilan saqlanadi.

Ad: *Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. – Т., 1991; Собрание восточных рукописей академии наук Узбекистан. VII. – Т., 1964.*

Muh.A.

SHAHRISABZIY MUHAMMAD TOHIRXO‘JA – U Buxoro xattotlik maktabi vakili, olim. Nasx va nasta’liq xatida mohir bo‘lgan. “Xamsa” va “Mahbub ul-qulub”ni bir muqovada jamlab ko‘chirgan: O‘zR FAShI Inv. № 2913. 338 varaq. Shahrisabzda 1245/1829-y.da kitobat bo‘lgan.

Ad: *Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. – Т., 1991; Собрание восточных рукописей академии наук Узбекистан. VII. – Т., 1964.*

Muh.A.

SHAHOBIDDIN SUHRAVARDIY (taxallusi; to‘liq ismi: Shahobiddin Abuhafs Umar ibn Muhammad Bakriy Suhravardiy (1144, Zanjon − 1234, Bag‘dod) − yirik tasavvuf olimi. Ko‘nyasi *Abu Abdulloh, Abu Nasr, Abu Qosim* bo‘lib, islom uchun qilgan ulkan xizmati va sohibi irshod bo‘lganligi bois *Shahobiddin, Shayx ul-slom, Shayx ush-shuyux* unvonlari bilan mashhur bo‘lgan. “N.M.” tazkirasida N. Sh.S.ning karomatlari, tariqat ahlidan ekanligini turli valiylar haqidagi ma’lumotlarda berish barobarida maxsus ham to‘xtaladi. N.ning ma’lumotiga ko‘ra, shayx “Abubakr Siddiq (r.a.) farzandlaridindur. Tasavvufda intisobi o‘zining ammi Shayx Abunnajib Suhravardiyg‘a”. Jumladan, tazkirada Imom Yofe’iy tomonidan “o‘z davrining yagonasi, nurlar matla’si, sirlar manbayi, tariqat rahbari, haqiqat tarjimoni, zohiriy va botiniy ilmlarda barcha ulug‘

shayxlarning ustozi, oriflar yo‘lboshchisi, soliklar tayanchi, rabboniy olim” deb ta’riflangan. Ustozi va amakisi Abunnajib Suhravardiy Abdulqodir Giloniy hazratlari bilan suhbatdosh va ma’naviy birodar bo‘lgan. Shu sababli Sh.S. ham Giloniy suhbatlariga musharraf bo‘lgan. Tariqatda suhbatning ta’siriga alohida qiymat bergan N. ushbu ma’lumotga ham e’tibor qaratadi: “…Va Shayx Abdulqodir Giloniy r. suhbatig‘a yetibdurlar va alardin o‘zga ham mashoyixdin ko‘pning suhbatig‘a musharraf bo‘lubdurlar. Va debdurlarki, ba’zi abdol bila muddate Abbodon jazirasida bo‘lur ermishlar. Va Xizr (a.s.) bila suhbat tutubdurlar. Shayx Abdulqodir alar vasfida debdur: “Sen Iroqdagi mashhur kishilarning oxirgisisan”. Giloniyning ushbu ta’rifi mashhur bo‘lgan. Va hazratning duolariga musharraf bo‘lgan Sh.S. suhravardiya tariqatida muhim o‘ringa ega bo‘ldi, tasavvufni anglash haqidagi ko‘plab kitoblari bilan birga muridlarni ham tarbiyat etdi. N. Sh.S. asarlari bilan tanish bo‘lgan va ulardan ta’sirlangan. Shayxning kitoblari islom, tasavvufni tushunishda bugun ham qiymatlidir. Shu bois N. ham ularning ba’zilari haqida asarlarida to‘xtaladi. Olima Suyima G‘aniyeva “Navoiy tilga olgan asarlar” risolasida bu haqida ma’lumot beradi. N. quyidagi asarlarini alohida e’tirof etadi: “Ko‘p tasniflari bor. “Avorif”dek va “Rashf un-nasoyih” va “A’lom ut-tuqo”dek. “Avorif”ni Makkada tasnif qilibdurlar”. “H.A.” dostonida qalam va qalam ahli haqida yozarkan:

Kilki “Shavohid” sari bo‘lsa kafil,
Shohidi maqsudg‘a bo‘lsa dalil.
Bo‘lsa “Haqoyiq”niki cheksa qalam,
Ezsa “Maorif”niki yozsa raqam, –

deya tahsinga loyiq asarlarni sanaydi. Shuningdek, keyingi bobda xattot Yoqut Hamaviy haqidagi ma’lumotlarda ham xattotning buyuk martabasi Shayx S.ning bahosiga ko‘ra belgilanadi. Shayx uning ishi doim “Qur’on” ko‘chirish bo‘lib, hech kim u singari ko‘chira olmasligini, Xudoning so‘zlariga ziynat bergani uchun uni hurmat qilish vojibligini ta’kidlaydi. Irfon ahli boshlig‘i so‘zlaridan Yoqutni bilgach, shoh unga o‘z majlisiga kelib o‘ltirishni buyuradi.

N.ning shayxga ehtiromini Sh.S.ning valiylik rutbasidan bahs yuritilgan mazkur bobning boshlanishidan ham bilish mumkin:

Bog‘i fano gulbunida shuhravard,
Ulki anga gulshan edi Suhravard.

Nafs-u havo devig‘a bermakka tob,
Avji haqiqat falakida shihob.

Taxti uza oni chiqorib turub,
Chun oni o‘lturtub, o‘zi o‘lturub.

Durj bir erdi dog‘i gavhar iki,
Burj bir-u ustida axtar iki.

N. “N.M.” tazkirasida Sh.S.ning Sayyid Burhonuddin Muhaqqiq q.s., Shayx Muhammad Yamaniy (q.t.r.), Xoja Ahmad b. Mavdud b. Yusuf Chishtiy q.s., Shayx Bahouddin Valad (q.t.s.), Shayx Farid Shakkarganj (q.s.a.) kabilar bilan musohibligi, Shayx Najibuddin Ali b. Buzg‘ush Sheroziy (q.s.), Shayx Shamsuddin Safiy (r.t.)lar esa muridlari ekanliklari aytiladi. Ammo uning zamondoshi va suhbatdoshlari orasida shayxi akbar Ibn Arabiy alohida ta’kidlanadi. Ular orasida kechgan hol suhbatlaridan bahs etiladi.

“Va Imom Yofi’iy tarixida mazkurdurkim, Shayx Muhyiddin Arabiy bila Shayx Shihobuddin Suhravardiy (q.s.)g‘a muloqot ittifoqi voqe’ bo‘lubdur. Va ba’zi akobir dedilarki, ul muloqot Haram tarafida ekandur. Har biri alardin yana biriga nazora qilib o‘tushubdurlar, onsizki oralarida kalome voqe’ bo‘lg‘ay. Andin so‘ngra Shayx Shihobuddin holini alardin so‘rubdurlar. Alar debdurlarki, “u boshdan oyog‘iga qadar sunnat bilan to‘ladir”. Shayx Shihobuddindin alarning holini so‘rubdurlar. Debdurki, “u haqiqatlar dengizidir!”. Ba’zi buzurgvordin andoq eshitildiki, Haram soyasida suhbat tutubdurlar. Va Shayx Shihobuddin ul Hazratdin necha savol qilibdurlar.

Ba’zig‘a javob beribdurlar va ba’zig‘a debdurlarki, Tubo daraxti soyasida javob bergumizdur. Bu so‘z bila bir-biridin ayrilishibdurlar”. Darhaqiqat, Sh.S. fiqh bilimdonlaridan edi. Uning amalida, ta’lim usullarida Muhammad (s.a.v.) ning sunnatiga tayanganligi yaqqol ko‘ringan. U haqida zamondoshlarining xotiralari ham fikrimizni quvvatlaydi. N. ham shayxning bu fazilatini urg‘ulaydi: “Iqboliya” risolasida mazkurdurki, Shayx Ruknuddin Alouddavla q.s. debdurlarki, Shayx Sa’duddin Hummuyiydin so‘rubdurlarki, Shayx Muhyiddin Arabiyni nechuk topting? Debdurki, “Sohilsiz, shiddatli to‘lqinlanuvchi daryo”. Va debdurki, Shayx Shihobuddin Suhravardiyni nechuk topting? Debdurki, “Suhravardiy peshonasidagi payg‘ambar (s.a.v.)g‘a tobelik nuri bu boshqa narsadir”. Sh.S.ning hayoti va ijodi haqidagi ma’lumotlarga N.ning “N.M.” asari asos ekanligi shubhasiz. Chunki tazkirada ham shayxning hayoti, ham asarlari, ham tariqati, ham zamondoshlari bilan muloqotlari haqida atroflicha to‘xtalinadi. Shayxning vafoti haqida esa shunday deyiladi: “Valodati besh yuz o‘ttuz to‘qquzda Rajab oyida ermish, vafotlari olti yuz o‘ttuz ikkida ermish, vallohu taolo a’lam”.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Ҳомидий Ҳ. Тасаввуф алломалари. – Т., 2004; Шаҳобиддин Суҳравардий. Рубоийлар // Донишмандлар туҳфаси. – Т., 2009; Ғаниева С. Навоий ёдга олган асарлар. – Т., 2004.*

E.O.

SHERAM (t.y. va v.y.n., – Xuroson) – shoir. N.ning “M.N.” tazkirasida keltirilishicha, tarbiya ko‘rgan, go‘zal axloqli, tug‘ma iste’dodli kishi bo‘lgan. Ravon uslubda badiiy yetuk she’rlar yozgan. Zullisonayn shoir bo‘lib, ham turkiy, ham forsiyda qalam tebratgan. N. uning quyidagi turkiy va forsiy matla’larini misol keltiradi. Turkiy matla’:

Yoridin har kim tushar ayru, parishonlig‘ chekar,
Vasl qadrin bilmagan mendek pushaymonlig‘ chekar.

Forsiy matla’:

Mashav, nosih, ba ko‘yi aql-u donish rahnamun mora,
Nadorem ixtiyori to chi farmoyad junun moro.

Tarj.: Ey nasihatgo‘y, aql-u ma’rifat ko‘yida bizga rahnamo bo‘lma, chunki bizning ixtiyorimiz o‘zimizda emas, junun – telbalik qayoqqa yo‘llasa, o‘sha yoqqa ketaveramiz.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011.*

E.O.

SHEROZ – Sh. murakkab so‘z bo‘lib, sher-yaxshi, roz-hamasl. Sh. Erondagi tog‘dan oqib tushadigan suvlari shirin, havosi mo‘tadil, atrofi tog‘lar bilan o‘ralgan, dengizdan 1585 gaz balandlikda, Tehrondan 933 ming gaz uzoqlikda joylashgan shahar nomi. Eronning janubiy qismida bo‘lib, shimoldan Isfahon, sharqdan Yazd va Kirmon bilan chegaradosh. Sh. qadimiy shahar – Fors ibn Som ibn No‘h tomonidan barpo etilgan. Bu shaharni Hajjojning ukasi Muxammad ibn Yusuf Saqafiy qaytadan obod qiladi. Sh.da qadimda olti darvoza bo‘lib, “Bog‘i shoh”, “Isfahon”, “Sa’diy”, “Qassobxona”, “Shohdo’iy” va “Karzun” nomlari bilan atalgan Sh. o‘zining aziz-avliyolari va Sa’diy Sheroziy, Hofiz Sheroziy, Ahli Sheroziy kabi mashhur shoirlari hamda boshqa buyuk shaxslari b-n mashhur.

N. asarlarida Sh. unda tug‘ilgan kishilar, shoirning salaflari, ulug‘ siymolar nomi eslanganda ko‘p bora tilga olingan. M-n.: “Vali Qalandar-Bobur Mirzoning mulozimlaridan... Sherozda favt bo‘ldi va qabri hamondadur”.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алиакбар Деҳхудо. Луғатнома, Теҳрон. 9-жилд.*

Muh.A.

SHEROZIY IBODULLOH AYYUB IBN FAZLULLOH– xattot, olim. Nasx va nasta'liqda yozgan. "Saddi Iskandariy"ni Tabrizda 1076-hijriy yilning safar oyida (1665-yil avgust) ko'chirib tugatgan. Sankt-Peterburg Sharqshunoslik institutida (inv. № S 832. 255 varaq) saqlanmoqda.

Ad.: *Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. – Т., 1991; Собрание восточных рукописей академии наук Узбекистан. VII. – Т., 1964.*

Muh.A.

SHEROZIY SA'DIY – (to'liq ismi − Muslihiddin Abu Muhammad Abdulloh ibni Mushrifiddin (1203–1292, Sheroz) − mashhur fors-tojik shoiri, adibi va mutafakkiri. Sharq xalqlari orasida Shayx Sa'diy nomi b-n shuhrat tutgan. Otasi Sheroz otabegi Sa'd binni Zanjiyning mulozimlaridan bo'lgan. Lekin otadan yosh yetim qolgan Sh.S. boshlang'ich ma'lumotni tug'ilgan shahri Sherozda olgach, tahsilni davom ettirish u-n xalifalik poytaxti, ilm va madaniyat markazi bo'lgan Bag'dodga boradi. Mashhur "Nizomiya" va "Mustansiriya" madrasalarida kalom, fiqh, tafsir ilmlari, arab tili sarf-u navhi, arab va fors adabiyoti, Sharq falsafasi, tarix, mantiq, tib, tabiiy va aniq fanlarni o'rganadi. O'z davrining dongdor tasavvuf olimi va faylasuf adibi Shahobiddin Suhravardiy hamda yirik ilohiyot allomasi Abulfaraj Abdurahmon ibn Javziy qo'lida tahsil oladi. XI asr saljuqiy sultonlardan bir nechtasiga vazirlik qilgan yirik davlat va jamoat arbobi Nazomulmulk asos solgan "Nizomiya" madrasasi 6 ming talabani o'z bag'riga olsa, "Mustansiriya" kutubxonasida 70 ming jilddan ortiq kitob bo'lgan. Bu ikki ulkan madrasaning musulmon Sharqidagi nufuzini shundan ham bilsa bo'ladi. Talabalar orasida, ayniqsa mashhur arab shoiri Mutanabbiy she'rlariga qiziqish kuchli edi. Bu mutolaalar keyinchalik Sh.S. ijodiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Sh.S. bu yerdagi ilmiy-adabiy davralarda faol ishtirok etib, bilimining keng va chuqurligi, dalillarining o'tkir va asosliligi, voizlik iqtidori tufayli hammaning e'tiborini o'ziga jalb qilar va bahs-u munozaralarda hamisha g'olib chiqar edi.

Madrasani tugatgan Sh.S. olgan bilimlarini amaliyotga qo'llash o'rniga, Sharq mamlakatlari bo'ylab uzoq yillik sayohatga otlanadi. Buni ikki sabab b-n asoslash mumkin: birinchisi − shoirning sayohatga o'chligi, ikkinchisi − mo'g'ullar tasarrufidagi ulkan hududda ilm-u ijod u-n osoyishta shart-sharoitning yo'qligi. U goh olim va voiz, goh so'fiy va darvesh suratida Eron, Arabiston, Kichik Osiyo, Misr, Xuroson, Sharqiy Turkiston kabi mamlakatlarni ba'zida ot-u eshak, ba'zan esa poyi piyoda kezib chiqdi. Bu sayohatlar 20 yildan ortiq davom etgan. Sayohat davrida Sh.S.ga karvonni qaroqchilardan himoya qilib, muhorabaga kirishiga ham, turli joylardagi madrasa va qozixonalarda va'z o'qishiga ham, shayx-u so'fiylar b-n mubohasa qilishiga ham to'g'ri kelgan. U Hindistonda ham bo'lib, bir muddat butxonada istiqomat qilgan, salibchilarga asir tushib, ularning qal'alarini tuzatish ishlarida qatnashishga majbur bo'lgan. Bu sayohatlar davomida Sh.S. hayot ilmini chuqur o'rganib, inson fe'lini butun murakkabligi b-n anglab, o'z davrining ko'pni ko'rgan donishmand kishisi bo'lib yetishdi. XIII asr o'rtalarida Sherozga qaytib kelgan shoir dunyo tashvishlaridan o'zini chetga olib, shahar chekkasidagi shayx Abu Abdulloh Hafif xonaqosida faqirona hayot kechiradi.

Fors-tojik adabiyotida Sh.S.ning maqomi juda yuksak. Xususan, boy hayotiy tajribasi asosida yaratgan "Bo'ston" (1257) va "Guliston" (1258) asarlari unga olamshumul shuhrat keltirdi. Uni g'azal janrining ustodi sifatida ulug'lashadi,

chunki ungacha forsiy she’riyatning yetakchi janrlari qasida, doston, masnaviy, qit’a va ruboiy edi. Rudakiy, Sanoiy, Xoqoniy, Jamoliddin va Kamoliddin Isfahoniylar ko‘plab g‘azallar yozgan bo‘lsalar-da, ular qasida va qit’a xarakteriga ega bo‘lib, o‘zaro mustaqil alohida baytlardan g‘azal yaratish an’anasini S.Sh. boshlab berdi. U g‘azalchilikdagi o‘zigacha olib borilgan tajribalarni rivojlantirib, g‘azalni takomilga yetkazdi, keyin Hofiz Sheroziy uni yuksak cho‘qqiga olib chiqdi. S.Sh. g‘azallari 4 devondan iborat bo‘lib, ular “Tayyibot” (“Latif g‘azallar”), “Badoye’” (“Yangi g‘azallar”), “Xavotim” (“Xotima g‘azallar”) va “G‘azaliyoti qadim” (“Eski g‘azallar”) dan iborat. Sh.S. ikki tilda yoziladigan she’r turi − mulamma’ (shir-u shakar)ning ham asoschisi hisoblanadi. Arab tilini yaxshi bilganligidan u arabcha misra va baytlarni forsiy b-n uyg‘unlashtirib, ushbu shaklni ixtiro qilgan. Keyinchalik forsiy-turkiy ibora va misralar vositasida shiru shakar yozish an’anasi paydo bo‘ldi. Sh.S. tarje’band janrini ham rivojlantirib, baland poyaga ko‘tardi. Undan keyin o‘tgan shoirlar, hatto Hofiz va Jomiy kabi she’r ustodlari ham bu borada unga ergashdilar. Sh.S. fors-tojik badiiy nasrining ham asoschisi hisoblanadi. Ungacha faqat maktublar, hujjatlar, ilmiy va tasavvufiy asarlar, adabiy xarakterdagi tarixiy lavhalargina nasrda yozilgan. Bundan tashqari, shoirning “Sohibiya” asari, arabcha va forscha qasidalari, qit’a, ruboiy va fardlari ham mashhur. Eronda Muhammadali Furo‘g‘iy tomonidan tartib berilgan Sh.S. kulliyoti 18 bo‘limdan iborat bo‘lib, o‘ndan ortiq janrdagi asarlarni o‘z ichiga oladi.

Bir umr xalq ichida yashagani, hayotning butun achchiq-chuchugini totgani u-n ham Sh.S. asarlari boshqa Sharq shoirlaridan hayratlanarli darajada hayotiyligi b-n alohida ajralib turadi. Uni Sharq adabiyotshunoslari vuqu’go‘y, ya’ni hayotni bor bo‘yicha tasvirlaydigan adib deyishadi. “Bo‘ston” va “Guliston” hayotiy hikoyatlardan tashkil topgani, donishmand shoirning bu hikoyatlar so‘nggida qissadan hissa tarzida keltirgan she’rlari real turmushdan chiqarilgan xulosalar ekanligi b-n jahon ilm-u adab ahlini birday o‘ziga tortib kelmoqda. “Guliston”ga ergashib ko‘plab asarlar yozilgan, lekin ulardan faqat 3 tasi shuhrat qozongan: Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston”i, Majdiddin Xofiyning “Xoriston-”i, Habib Qooniyning “Parishon”i. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Tinchlik Kengashi binosi peshtoqiga “Guliston”dan olingan quyidagi misralarning darj etilgani ham Sh.S.ning insoniyat shoiriga aylanib ketganligidan dalolat beradi:

Bani odam a’zoyi yak paykarand,
Ki dar ofarinish zi yak gavharand.
Chu uzve ba dard ovarad ro‘zgor,
Digar uzvhoro namonad qaror.

Tarj.: Odam bolalari ibtidoda bir gavhardan bino bo‘lganlari tufayli yaxlit bir vujud a’zolari kabidirlar. Binobarin, zamon uning bir a’zosiga jarohat yetkazsa, boshqa a’zolari ham o‘z tinchini yo‘qotadi.

1958-y. Butun Jahon Tinchlik qo‘mitasining qarori bilan “Guliston”ning 700 yilligi xalqaro miqyosda keng tantana qilingan.

Pand-nasihat, hikmat Sh.S. asarlarining qatqatiga singib ketgan. U hayotiy voqea-hodisalarni turli shakllarda ifodalab, ko‘rgan-kechirganlari yuzasidan xulosa chiqaradi va kishilarni insoniy kamolotga da’vat etadi, umr yo‘llarida qoqilmaslik, adashmaslik, o‘tkinchi hayotning qadriga yetishga, bir-birini avaylashga chaqiradi, halol mehnat qilib, osoyishta yashashning ahamiyatini tushuntiradi, ilm-u hunarning afzalliklarini uqtiradi. Albatta, tasavvuf adabiyoti namoyandasi sifatida shoir so‘fiyona she’rlar ham yozgan. Lekin ularda ham, N. ta’biri bilan aytganda, haqiqiy va majoziy muhabbatni mahorat bilan omixta qilib yuborgan.

Sh.S. asarlarining tili sodda, uslubi lo‘nda, xalqona so‘zlar va obrazli iboralarga boy, tashbeh-u timsollari hayotiy, she’riy san’atlarni mahorat bilan qo‘llaydi. Shaklan go‘zal, mazmunan teran, badiiy yuksak bu asarlarga o‘xshatib yozishga uringanlar ko‘p, lekin hech kim Sh.S. darajasiga ko‘tarilolmagan. Shuning uchun ham

fors-tojik adabiyotshunoslari uning uslubini “sahli mumtane’”, ya’ni “oson-u, imkoni yo‘q” deb ta’riflaganlar.

Sh.S. o‘zidan keyingi Sharq adabiyotiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan zabardast so‘z san’atkoridir. Shoir asarlari qadimdan o‘zbek xalqi orasida ham mashhur. “Bo‘ston” va “Guliston” madrasalarda asosiy darsliklar qatorida o‘qitilib kelgan. O‘zbek shoirlari undan o‘rgangan, ta’sirlangan. “Guliston” 1390–1391-yy.da Sayfi Saroyi tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan edi. N. “Devoni Foniy”da Sa’diy g‘azaliga 22 ta tatabbu’ qilgan, shuningdek, uning tavrida 4 ta g‘azali mavjud. Chunonchi, N.ning Sh.S. g‘azaliga yozgan bir tatabbu’sida o‘qiymiz:

Foniy, ba rahi Sa’diy agar zad qadame chand,
Bo o‘ suxanash bin, ki chu shiru shakar aftod.

Tarj.: Foniy Sa’diy yo‘lida bir necha qadam urgani uchun ham so‘zlari sut va shakar qo‘shilganidek shirin bo‘ldi.

N.ning o‘zbek tilidagi ijodida bu buyuk salafining ta’siri katta. Bevosita “Guliston” ta’sirida yozilgan “M.Q.” asarida uni “haqiqat asrorig‘a majoz tariqin” omixta qilgan shoirlar guruhiga kiritib, “maoniy ahlining nuktapardozi” deb ulug‘laydi. “N.M.”da esa Sh.S.ga alohida fasl ajratib, uning batafsil ta’rifi va u b-n bog‘liq rivoyatlarni keltiradi. Jumladan, u yozadi: “So‘fiyaning afozilidan ermish... ulumidin tamom bahrasi bor ermish va odobdin komil nasibi. Ko‘p safar qilibdur va aqolimni kezibdur va necha qayta hajg‘a yayoq boribdur... Va kibor mashoyixdin ko‘pining xizmatig‘a yetibdur. Shayx Shahobuddin suhbatig‘a musharraf bo‘lubdur va alar bila bir kemada daryo safari qilibdur...

Shayxning ash’ori devoni va “Bo‘ston” masnaviysi va “Guliston” kitobi va soyir kutubi va rasoyili andin mashhurroqdurki, andin biror nima irod qilg‘ay. G‘azalgo‘y akobiru shuaro oldida mundoq muqarrardurki, g‘azal tavrig‘a Shayx muxtare’durlar, jonso‘xtalar va ishqibozlarg‘a va dilafro‘xtalarg‘a va jongudozlarg‘a filvoqe’ g‘arib haqqa sobit qilibdurlar”.

N.ning hikmatga aylanib ketgan mashhur:

Odamiy ersang, demagil odami −
Onikim, yo‘q xalq g‘amidin g‘ami, −

misralari Sa’diyning

Tu gar mehnati digaron beg‘ami,
Nashoyad, ki nomad nihand odami, −

baytidan ilhomlanib yozilgani shubhasiz.

“L.T.” dostonida ham maktabda “Bo‘ston” va “Guliston” asarlari o‘qitilgani haqida ma’lumot beradi.

Avloniyning “Turkiy guliston” asarlari bevosita S.Sh. ta’sirida yaratilgan. S.Sh. asarlarini o‘zbek tiliga Muhammadrizo Ogahiy, Murodxo‘ja domla, Sidqiy Xondayliqiy, G‘.G‘ulom, Chustiy, Muinzoda, Sh.Shomuhamedov, R.Komilov, E.Ochilov kabi fors-tojik adabiyotining bilimdonlari tarjima qilganlar.

Ad.: *Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Куллиёти Саъди. Теҳрон, 1380 (ҳ.ш.); Саъдий. Бўстон. – Т., 1960; Саъдии Шерози. Мунтахаби куллиёт. – Д., 1956; Муслиҳиддин Саъдий. Гулистон. – Т., 1968; Саъдий Шерозий. Гулистон (Огаҳий тарж.). – Т., 1993; Саъдии Шерози. Бўстон. –Душанбе, 1965; Саъдии Шерозий. Гулистон. – Душанбе, 1988; Саъдий Шерозий. Ҳикматга тўла олам. – Т., 2007; Саъдий Шерозий. Ҳикматлар. – Т., 2013;*

E.O.



SHEROZIY HOFIZ – (taxallusi; to‘liq ismi: Shamsuddin Muhammad Hofiz Sheroziy (1326 − Sheroz – 1389) – mashhur fors-tojik shoiri. Asl ismi − Mu-

hammad, laqabi − Shamsuddin, taxallusi − Hofiz, Xoja Hofiz nomi b-n jahoniy shuhrat qozongan. Unga berilgan Xoja sifati ota-bobolarining savdogarlar tabaqasiga mansubligini bildiradi. Lekin otasi yosh o‘lib, oila tang ahvolga tushib qoladi. Yosh Muhammad tirikchilik u-n novvoyga xamirturush tayyorlab beruvchi bo‘lib ishga kiradi. Topgan pulining bir qismini tahsil olishga sarflaydi. Zehni o‘tkir bo‘lganidan tez orada fiqh, hadis, arab tili va adabiyoti, Qur’on va uning tasvirini mukammal o‘zlashtiradi. U, xususan, Qur’on qiroatida mahorati tom hosil qilib, uni 14 usulda tilovat qiladi. Ma’rakayig‘inlarda Qur’onni, qissaxonlik kechalarida xalq kitoblarini yoqimli ovozda o‘qib berib, ro‘zg‘or tebratadi. Shuning u-n ham uni Hofiz deb ulug‘laydilar va bu nom keyinchalik shoirning adabiy taxallusiga aylanib ketadi. U mohir xattot ham bo‘lib, tirikchilik u-n turli kitoblarni ko‘chirgan, Qur’onni kitobat qilgan. Sh.H. ko‘chirgan Xusrav Dehlaviy “Xamsa”sining “Xusrav va Shirin”, “Iskandarnoma”, “Hasht bihisht” dostonlarining bir nusxasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida 2179-raqami b-n saqlanadi.

Sh.H. yashagan davrda Sheroz Eronning ilmiy-madaniy markazlaridan biri edi. Saroydagi rasmiy adabiy muhitdan tashqari, shahar hunarmandlarining qissaxonlik va she’rxonlik davralari ham mashhur edi − shoirni tarbiyalagan va elga tanitgan ana shu davralar bo‘ladi.

U o‘zi sevgan Musallo bog‘iga dafn etilgan va uning sharofati b-n keyinchalik bu bog‘ Hofiziya nomini olib, jahon ilm-u adab ahlining ziyoratgohiga aylangan. Abulqosim Boburning e’tiborli a’yonlaridan bo‘lgan Muammoiy shoir qabrini obod qildirgan. So‘ng Eron hukmdorlaridan Muhammad Karimxon Zand hozirgi sag‘anani qurdirgan (1811). Bu yerda kecha-kunduz shoir muxlislarining oqimi tinmaydi. Sh.H. Sharqda shunchalik shuhrat tutganki, uni muqaddaslashtirib, devonini ilohiylashtirib, fol kitobiga aylantirganlar. Sh.H. qabri ustiga uning devoni qo‘yilgan va shoir ziyoratiga kelganlar u asosida fol ochadilar.

Agar Sh.H. va Shohnabot ismli qizning muhabbati to‘g‘risidagi rivoyatlar haqiqat bo‘lsa, u oila qurib, ikki o‘g‘il ko‘rgan: biri yoshligida nobud bo‘lgan, Shohno‘mon nomli ikkinchi o‘g‘li Hindistonda vafot etib, Burhonpurda dafn qilingan. Xotini ham yosh o‘lib ketgan. Shoir she’rlarida bu judoliklar haqida ishoralarga duch kelamiz.

Sh.H.dan bor yo‘g‘i bir devon meros qolgan. Shuni ham uning o‘zi tuzmagan. Bu ishni Sh.H. vafotidan 30–40 yil keyin shoirning do‘sti va shogirdi Muhammad Gulandom amalga oshirgan. Lekin shu birgina devoni b-n u yarim dunyoni egalladi. Gulandomning shoir devoniga yozgan muqaddimasida aytilishicha, xos-u avomning majlisi, din-davlat arboblarining xilvatdagi suhbatlari, so‘fiy va rindlarning davralari Sh.H. g‘azallarisiz qizimasdi − u hayotligidayoq barcha toifaning xos shoiriga aylanib ulgurgan edi.

Sh.H. bir umr Sherozda yashadi. U faqat bir martagina XIII asrning 70-yy. boshida qisqa muddat Isfahon va Yazdda bo‘lgan. Shoirning she’rlari Sherozdan tashqarida ham mashhur bo‘lganligidan Bangola hukmdori Sulton G‘iyosiddin, Dakan podshohi Shoh Mahmud Bahmaniylar Sh.H. o‘z saroylariga da’vat qilib, sovg‘a-salomlar yuborganlar. Sulton Ahmad Uvays Jaloyiriy uni Bag‘dodga ham taklif qilgan. Lekin o‘z vatani va xalqini beqiyos muhabbat b-n sevgan Sh.H. na saroyga borgan, na boshqa mamlakatlarga. U hukmdorlarni madh etmagani, saroy muhitidan o‘zini olib qochgani, aksincha, mehnatkash va huquqsiz xalq tomonida turib, uning quvonch-u tashvishlari, dard-u alamlarini otashin misralarda tarannum etgani u-n yuqori tabaqalarga yoqmadi, ularning tahqir va xo‘rlashlariga nishon bo‘ldi. Mutaassib din namoyandalari va riyokor shayx-u zohidlarni mazammat etgani u-n ulamolarning qahr-u g‘azabiga duchor bo‘ldi. Holbuki, Sh.H.ning o‘zi komil musulmon bo‘lib, ijodi Qur’oni Karim va Hadisi sharif otlig‘ ikki buyuk chashmadan suv ichadi. Shuning u-n ham uning devonini “Forsiy Qur’on” deb ulug‘lashgan.

Sh.H. hammayoqni vayronaga aylantirgan mo‘g‘ullar hukmronligi inqirozga uchrab, mayda

xonliklar o‘rtasidagi o‘zaro toj-u taxt talashlari avj olgan, bundan xalqning tinkasi qurib, ahvoli xarob bo‘lgan bir davrda yashab ijod etdi. Uning davrida Sheroz 5 marta ana shunday janglar girdobiga tortilib, o‘zi vayron, xalqi qatli om qilindi. 50 yil (1338–1388) mobaynida 6 marta podshoh almashganligi ham shoir yashagan davrning notinchligini ko‘rsatadi. Bu podshohlardan faqat ma’rifatli va she’riyat muxlisi bo‘lgan Shayx Abuishoq Injugina (1342–1353) Sh.H.ni qo‘llab, unga homiylik qilgan. Undan keyin taxtga o‘tirganlar b-n shoirning munosabati yaxshi bo‘lmagan. Uni hatto quvg‘in qilmoqchi bo‘lganlar, lekin Sh.H.ning Sherozdan tashqarida ham mashhurligi bunga monelik qilgan. Bu narsalar uning ijodiga ta’sir etmasligi mumkin emas edi. Ma’shuqa ta’rif-tavsifi, visol lazzati-yu hijron hasratini tarannum etish vositasi bo‘lgan g‘azalga u ijtimoiy mavzular, falsafiy fikr-mulohazalarni omixta qildi. O‘z davrining siyosiy manzaralarini, ma’naviy qiyofasini haqqoniy gavdalantirdi. U ishq atalgan ulkan va bepoyon mavzu ichiga Olam va Odam dardini, jamiyat muammolarini dadil olib kirdi. Taqdir, dunyo, zamon, odamlar tanqidi shoir ijodida yetakchi o‘rin tutishi bejiz emas. Hofizni Hofiz qilgan narsa aslida − shu. Shoir insonning orzu-intilishlari, quvonch-u qayg‘usi, dard-u tashvishlari, muhabbati, fikr-u o‘ylarini avj pardalarda kuylash b-n adabiyotning asosiy obyekti inson ekanligini amalda isbotladi. Shuning u-n ham asrlar o‘tsa-da, uning shuhrati zarracha pasaygan emas, bil’aks, kundan kunga ortib bordi va bundan keyin ham shoir ijodiga bo‘lgan qiziqish kamaymasligi shubhasiz.

Sh.H. g‘azallari, avvalo, jozibali va yoqimli ohangi b-n har qanday o‘quvchini o‘ziga tortadi. Keyin hassos va isyonkor ruhi b-n uning qalbini to‘lqinlantiradi. Rang-barang timsol-u tashbehlari, yuksak badiiyati b-n maftun etadi. Nihoyat, keng va chuqur ma’nolari b-n aqlini band etadi. Qavat-qavat ramz-u timsollar pardasiga o‘ralgani b-n izlanish va tafakkur qilishga undaydi. Shoir she’rlari bir necha ma’no qirralariga ega bo‘lganligi u-n ham har bir toifa uni o‘zicha talqin etadi, o‘z maqsadiga xizmat qildiradi. Chunonchi, tasavvuf olimlari Sh.H.ni ilohiy ishq kuychisi sifatida o‘rgansalar, G‘arb va sobiq tuzum davridagi adabiyotshunoslar, aksincha, uni butunligicha dunyoviy shoirga chiqarib qo‘ygan paytlar bo‘ldi. Aslida shoir ijodida ilohiylik va dunyoviylik ajoyib bir tarzda uyg‘unlashib ketgan. “M.Q.” asarining “Nazm gulistonining xushnag‘ma qushlari zikrida” deb nomlangan 16-faslida N. qalam ahlini haqiqiy ishq kuychilari, o‘z ijodida haqiqiy va majoziy ishqni omixta qilgan hamda majoziy ishqni tarannum etgan shoirlar deya uch guruhga bo‘lar ekan, Sh.H.ni ikkinchi guruhga kiritadi. U yer-u ko‘kning yaratuvchisi bo‘lmish Allohni ta’rif-tavsif etish, unga bo‘lgan hassos muhabbatini avj pardalarda tarannum aylash b-n birga, Parvardigori olamning zamindagi xalifasi insonni ham unutmadi. Dunyo adabiyotida so‘zni Sh.H.day ming bir maqomda o‘ynatgan, so‘zga ming bor ma’no yuklagan, so‘zni ming bir sehr-u sinoat pardasiga o‘ragan yana bir shoirni topish qiyin. Sharqda hofizxonlik bejiz shuhrat tutmagan. Sh.H. devoni madrasalarda maxsus darsliklar qatorida o‘qitilgan. Sh.H. she’rlari tabiiyligi, samimiyligi, hassos bir muhabbat va yuksak badiiyatga yo‘g‘rilganligi, mazmunan teran va serqatlamligi, falsafasining quyuqligi, nozik ishoralarga boyligi, uslubining murakkabligi uchun ham unga “lison ul-g‘ayb” − “g‘oyibning tili” sifatini berganlar. Firdavsiy − masnaviyni, Umar Xayyom − ruboiyni qanchalik takomilga yetkazgan bo‘lsalar, Sh.H. ham g‘azalni shunchalik yuksak maqomga ko‘tardi. Mana, necha asrlardan buyon ruboiyda biror shoir Xayyomga yetolmagani kabi g‘azalda ham hech kim Sh.H. ning oldiga tusholgan emas.

O‘z ijodida may va u b-n bog‘liq timsollardan haddi a’losida foydalangani u-n Sh.H. rind va mayparast sifatida mashhur. Tasavvuf adabiyotida so‘fiyona istiloh-timsollarni eng ko‘p qo‘llagan va ularga eng ko‘p ma’no yuklagan ham Sh.H. hisoblanadi.

Sh.H. o‘zbek adabiyotiga ham kuchli ta’sir o‘tkazgan. Sayfi Saroyi, Hofiz Xorazmiy, Sakkokiy,

Atoiy, Lutfiy, Navoiy, Bobur, Mashrab, Nodira, Amiriy, Munis, Ogahiy, Muqimiy, Furqat, Hamza kabi barcha davr shoirlari Sh.H.ni o‘zlariga ustoz bilganlar, undan ta’sirlanib she’rlar bitganlar. Chunonchi, asl ismi Abdurahim bo‘lgan Hofiz Xorazmiy turkiy she’riyatning Hofiz Sheroziysi bo‘laman deb o‘ziga Hofiz taxallusini tanlagan bo‘lsa, hofizona hassos va yoqimli g‘azallari u-n Fuzuliyni turkiy she’riyatning Hofiz Sheroziysi deb ulug‘laganlar. N. Amir Xusrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiy bilan birga “biri − Isonafaslik Sheroz”, deb Sh.H.ni ham g‘azalchilikdagi ustozlari qatorida alohida ajratib ko‘rsatadi. Shoirning o‘zbek tilidagi ijodi bu buyuk salafi ta’siridan xoli emas. “N.Sh.” devonidagi so‘nggi g‘azalda uning o‘zi bu haqda shunday yozadi:

Yanaki nutq ila-yu ruh ila eturdi anga
Fuyuz orifi Jomiy-u rindi Sheroziy, −

Maz.: “Yana Jom orifi (Jomiy) va Sheroz rindi (Hofiz) ham (N. ijodiga) so‘z va ruh ila fayz yetkazdi”.

Forsiyda esa u, asosan, Sh.H. yo‘lidan bordi. “M.L.” asarida N.ning o‘zi bu haqda: “Yana forsiy g‘azaliyot devoni Xoja Hofiz tavridakim, jami’ suxandolar va nazmpiyrolar nazarida mustahsan va matbu’dur, tartib beribmankim, olti mingdan abyoti adadi ko‘prakdurki, ko‘prak ul Hazrat sha’niga tatabbu’ voqe’ bo‘lubdur”, − deb yozadi va salafini g‘azalda “yagonai asr” deb ataydi. U fors tilida bu buyuk salafi g‘azallari tatabbu’ida − 211, uning tavrida esa 20 ta g‘azal yozgan. Ayni jihatdan “D.F.”ni N.ning “Hofiznoma”si deb aytish mumkin (A.Hayitmetov). Bu g‘azallarning ko‘pida u Sh.H.ni ulug‘laydi, uning o‘z ijodiga ta’siri, undan o‘rgangani xususida so‘zlaydi. Jumladan:

Shahi-yu rif’at agar orzu kuni, Foniy,
G‘ulomi Hofiz-u xoki janobi Jomiy bosh, −

Tarj.: Ey Foniy, agar (so‘z mulkida) shohlik va yuksak martabani orzu qilsang, Hofizning bandasi-yu Jomiy ostonasining tuprog‘i bo‘l.

XVIII asr oxiri − XIX asr boshlaridan e’tiboran Sh.H. G‘arb dunyosini ham o‘ziga qaratdi. U G‘arb ilm-u adab ahlida Sharq so‘z san’atiga nisbatan mehr-u qiziqish uyg‘otdi. Xususan, 1812-y. da Yozey Fon Hammer shoir devonini to‘laligicha tarjima qilib, nemis tilida nashr ettirgach, Sh.H. ning shuhrati Germaniyada ortib ketadi. O‘sha paytda Germaniyada Sh.H. she’rlari o‘qilmaydigan, uning ijodi ustida bahs yuritilmaydigan biror adabiy uyushma yoki to‘garakni topish qiyin edi. Sh.H.ga ergashib yozilgan she’rlar ko‘paydi, hatto nemis adabiyotida sharqona shakldagi she’rlar, g‘azallar paydo bo‘ldi. I.V.Gyote “G‘arb-u Sharq devoni”ni yaratdi. Bu devon G‘arb adabiyotiga Sharq ruhini olib kirdi. Gyote o‘zini − Hotam, ma’shuqasini − Zulayho deb atab, ko‘plab sharqona she’rlar ijod qiladi. H Sh.H.ni “noyob uslub dahosi”, “muqaddas Hofiz”, “Sharqning Volteri” deb ulug‘laydi. Umuman, G‘arbda Sh.H.ni Heyne, Gyote, Shelli, Volter, Bayron kabi ulug‘ adiblar qatorida tilga olishgan. Rus adabiyotida ham Sh.H. katta shuhrat qozondi. A.Fet, A.S.Pushkin, M.Y.Lermontov, V.Jukovskiy, S.Yesenin, P.Gnedich, M.Praxov, A.Maykov, A.Mixaylov, M.Kuzmin, V.Ivanov, V.Bryusov kabi rus shoirlari Sh.H. ta’sirida hofizona ohanglarda she’rlar yozganlar, uning ijodini yuksak baholaganlar.

O‘zbekistonda Sh.Shomuhamedov, A.Hayitmetov, N.Komilov, H.Homidiy, A.Quronbekov, M.Azimov, R.Karimov, E.Ochilov va boshqalar Sh.H.ning adabiy merosi va hayoti ustida tadqiqot olib borganlar. Shoir she’rlari Xurshid, Chustiy, Muinzoda, Vasfiy, Sh.Shomuhamedov, J.Jabborov, E.Vohidov, J.Kamol, J.Quvnoq, O.Muxtor, S.Sayyid, M.Kenjabek, O.Bo‘riyev, O.Erkin, E.Ochilovlar tomonidan tarjima qilingan.

Ad.: *Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ҳофизи Шерозий. Куллиёт. – Д., 1983; Шамсуддин Муҳаммад Ҳофиз Шерозий. Ғазаллар. – Т., 1958; Ҳофиз Шерозий шеърияти-дан. – Т., 1985; Ишқ дафтари. – Т.,*

2000; Ҳофиз Шерозий. Рубоийлар // Муҳаббат тароналари. – T., 2005.

E.O.

SHERUYA – N.ning “F.Sh.” dostonidagi qahramon, Eron shohi Xusravning o‘g‘li. Mazkur obraz dostonga uning so‘nggi qismlarida kirib keladi va faqat 51, 52-boblarda tasvirlangan voqealarda ishtirok etadi. Ma’lumki, Xusrav dostondagi asosiy salbiy obrazlardan biri. N. uni takabbur, zolim, xudbin hukmdor sifatida tasvirlaydi.

Xusrav o‘z o‘g‘liga ham hech qanday mehr-muhabbat ko‘rsatmaydi. Sh.ga ham otasining fe’l-atvori sira xush kelmaydi:

Aning birla atosi tab’i noxush,
Ato tavri dog‘i kelmay anga xush.
Ato hargiz o‘g‘ul ko‘nglig‘a boqmay,
O‘g‘ulg‘a ham ato af’oli yoqmay.

Farhod o‘limidan keyin Xisravning taklifiga a’yonlari va qamalda qiynalgan xalqning tazyiqi ostida rozilik bildirgan Mehinbonu holdan ketgan Shirinning o‘ziga kelishi u-n fursat va Farhod bino qilgan bahavo qasr-u hovuz bo‘yida dam olib, sog‘ligini tiklashi u-n ijozat so‘raydi. Shohning ijozati b-n Shirinni taxtiravonga solib, tog‘ bag‘ridagi boqqa olib borayotganlarida shamoldan parda ko‘tarilib, Xisrav qo‘shinlari qatorida tomoshaga chiqqan Sh.ning ko‘zi uning beqiyos husniga tushadi va oshiqi beqaror bo‘lib qoladi. Otasiga azaldan kek saqlab yurgan, u b-n o‘zaro munosabatlari sovuq bo‘lgan Sh. uni oradan ko‘tarmay maqsadi hosil bo‘lmasligini biladi va Xusravning zulmidan bezgan amaldorlar b-n til biriktirib, shohni qatlga yetkazadi. Sh. Xusravni o‘ldiradi, lekin u bu ishni otasi zolim bo‘lgani uchun emas, birinchidan, Shiringa uylanish ilinjida, ikkinchidan, otasining toj-taxtini egallash maqsadida amalga oshiradi. Bunda Sh.ning ham otasi singari xudbin, rahmsiz ekani ravshanlashadi. Sh. otasidan boshqa ko‘plab salbiy xislatlarni ham meros qilib olgan, jumladan, u juda joni shirin, qo‘rqoq shaxs. Bahrom Chin mulkidan kelib Farhod uchun qasos olmoqchi bo‘lganda Sh. unga qarshilik ko‘rsatishga o‘zida kuch topolmaydi va “Farhodning o‘limida mening hech qanday aybim yo‘q, buni Bahromga ayt”, – deb Shopurga yalinadi. Shopurning tushuntirishidan so‘ng Bahrom uni jazolash niyatidan qaytib, o‘z huzuriga chaqirtirganda Sh. ro‘para bo‘lishga jur’at etolmaydi, lekin Bahrom qo‘ygan barcha talablarni bajaradi. Jumladan, urushda vayron bo‘lgan joylarni yana qaytadan tiklab obod qiladi. Aslida, “F.Sh” dostonidagi ushbu obrazning prototipi sosoniylar sulolasiga mansub hukmdor Sh.dir. U 628-y. o‘z otasi Xusravni o‘ldirib, taxtni egallagan, lekin ko‘p taxtda o‘tirmay vafot etgan.

N.ning “T.M.A.” asarida yozishicha, xalq Xisravning zulmidan to‘yib, Sh.ni uning o‘rniga o‘tqazadi. Mutakabbir va mutaassib Xisrav munajjimlarning zavoling avlodingning qo‘lida degan bashoratidan vahimaga tushib, 17 o‘g‘lini hibsda saqlagan, ularning ayollar b-n yaqinlik qilishiga yo‘l qo‘ymagan edi. Yana munajjimlarning Zobuliston hokimidan xatar bor, degan gaplariga ishonib, Mardonshoh sipohsolorni o‘ldiradi. Sh. ham mulk dag‘dag‘asi b-n 17 og‘a-inisini qatl qiladi. Otasini esa intiqom shartiga ko‘ra Mardonshohning o‘g‘li qo‘li b-n o‘limga yetkazadi. Lekin o‘zi ham 7 oy ustida bedavo bir kasallik b-n olamdan o‘tadi. Doston muqaddimasida “Ajal Sheruyasi” deyish b-n N. uni hatto ajal timsoli sifatida ko‘rsatadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – T., 2011; Ўзбек адабиёти тарихи. Беш томлик. Иккинчи том. Тошкент, 1977; Қаюмов А. “Фарҳод ва Ширин” сирлари. – T., 1972.*

Q.E.

SHE’R (ar. – shuur – sezgi) – 1) muayyan o‘lchov asosidagi ritmga ega nutq shakli, nazm; 2) she’riy yo‘lda yozilgan kichik hajmli asar, lirik she’r. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida, xususan,

“Devoni lug‘otit turk”da Sh. “qoshug‘” deb atalgan va asosan to‘rt qatorni tashkil etgan. Fitrat Sh.ni manzum (tizim she’rlar) va mansur (sochim she’rlar) kabi turlarga ajratar ekan, vazn va qofiyani tizim she’rlar uchun xos sifatdir, – deya baholasa, mansur she’rlarda esa vazn va qofiya emas, balki so‘zlardan san’atkorona foydalanish muhimligini yozadi. Mumtoz adabiyotda, xususan, N. zamonida she’rshunoslik ilmiga alohida ahamiyat berilgan. Shoirlarning mazkur ilmini qay darajada puxta egallagani uning darajasini ham belgilovchi omillardan sanalgan. “G‘.S.”da *“Va durudi noma’dud ul anbiyo halqasining xotamig‘akim, inn ash-she’ra lahikmatun va inn al-bayona lasihrun nuktasi bila shuaro poyasin hukamo martabasig‘a chekti-yu bayon rutbasin sehr manzilasig‘a tortti”,* – deb shoirlar martabasini ulug‘laydi. “S.S”.da badiiy adabiyotda ikki uslub, ya’ni nazmiy va nasriy uslub mavjudligini ta’kidlab, ularni bir-biriga qiyoslar ekan:

Nasr-u nazmi angaki mudrakdur,
Nazmining poyasi biyikrakdur. –

deya nazmning nasrdan ustun ekanligini, she’riy asarlarda chiroyli, ta’sirli ibora va badiiy san’atlarni ko‘plab qo‘llash va injuni ipga tergandek misralar tizish mumkin, nasr esa, sochib yuborilgan javohir kabidir, – deydi. Mutafakkir shoir “H.A.”da quyidagi fikrlarni keltirgan:

Nuktavu ta’rix-u hikoyot ham,
She’rda har nav’ maqolot ham.

Yoki “S.S.” dostonida quyidagi baytni uchratamiz:

She’r ham chun kishigadur farzand,
Ko‘ngliga qut-u bag‘rig‘a payvand.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Маҳмуд Қошғарий. Девони луғотит турк; Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 4-жилд. – Т., 2006; Қуронов Д. ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. – Т., 2013.*

E.Q.

SHIBLIY ABUBAKR (ABUBAKR JA’FAR BIN YUNUS) (Abubakr Ja’far bin Yunus 861 – Somurra – 945) – bag‘dodlik so‘fiy, shayx. Junayd Bag‘dodiy hamda Mansur Hallojning shogirdlaridan va safdoshlaridan. Manbalarda aytilishicha, uning ota-bobolari asli o‘ratepalik bo‘lib, keyinchalik Bag‘dodga ko‘chib borishgan. N.ning xabar berishicha, otasining nomida ixtiloflar bor. Lekin Sh.A.ning qabri toshida Ja’far bin Yunus deb yozilgan ekan. N. Sh.A.ning asli misrlik ekanligini aytib o‘tadi. Sh.A.ning otasi, amakisi mansabdor shaxslardan bo‘lgan. Sh.A.ning o‘zi ham dastlab xalifa Muvaffaqning hojibi vazifasida ishlagan. 40 yoshida shimoliy Erondagi Damovand viloyati voliysi etib tayinlangan, to‘satdan bu vazifani tark etib, Bag‘doddagi mashhur so‘fiylardan Xayr un-Nassoj majlisida tavba qilib, so‘fiylik yo‘lini ixtiyor etgan. Junayd Bag‘dodiydan tasavvuf sirlarini o‘rgangan. Mansur Halloj b-n yaqin bo‘lgan. Uning qatlidan keyin ehtiyotkorona harakat qilgan va Mansur Hallojni Allohning sirini ochganlikda ayblagan. Sh.A. kalom ilmida Horis Muhosibiyning izdoshlaridan sanalgan.

Sh.A. o‘z davridagi Junayd Bag‘dodiy, Mansur Halloj, Abubakr Saydaloniy kabi bir qator mashhur so‘fiylar bilan suhbat qilgan. Abubakr Timistoniy, Abulhusayn Xusriy, Shayx Abu Zur’a Roziy, va Abdulaziz Tamimiy kabi so‘fiylarning ustozi bo‘lgan.

Sh.A. so‘fiyona mazmunda she’rlar ham yozgan. Abul’alo al-Ma’arriy uning she’rlariga yuqori baho bergan. Undan bizga naql va rivoyatlar hamda hikmatli so‘zlar yetib kelgan. N. “N.M.”da Sh.A.ning tasavvuf sirlarini birinchilardan bo‘lib, minbarlarda oshkor etganligini aytib o‘tadi: “Avval kishikim, ishoratni iboratqa kelturdi

va bu tariyqdin so‘z aytti, ul (Shibliy) erdi. Chun yana bu tabaqada Junayd (q.s.) paydo bo‘ldi. Bu ilmga tartib berib, bast qilib, kutub bitidi. Chun Shibliy (q.s.) arog‘a kirdi. Bu ilmni minbar ustiga aytib, oshkoro qildi. Junayd so‘zidurkim, biz bu asrorni yoshurun uylarda va sardobalarda mahramlarg‘a aytur erdik. Shibliy minbar ustiga aytib, elga oshkor qildi”.

N. “N.M.” tazkirasida Sh.A.ning hayoti haqidagi muhim ma’lumotlar bilan birgalikda ulug‘ so‘fiyning ibratli hikmatlarini ham keltiradi. “N.M.”ning debochasidagi zakot ta’rifida faqihlar amali bilan so‘fiy zotlarning bu farzni ado etishdagi farqli tomonlari ulug‘ avliyo Sh.A. hikmatli so‘zlari misolida yoritilgan: “Shayx Shibliy (q.s.)din bir faqih so‘rubdurki, zakot adosi ne nav’dur? Shayx debdurlarki, sanga farz bo‘lur zakotnimu deyin? Yo manga farz bo‘lur zakotnimu deyin? Aytibdurlarki, manga bo‘lur zakot qaysidur va sanga bo‘lur zakot qaysidur? Shayx debdurlarki, sanga bo‘lur zakot uldurkim, har ikki yuz diramdin besh diram Tengri yo‘lida bergaysan. Manga bo‘lur zakot budurkim, har ikki yuz diramdin ikki yuz besh diram Tengri taolo yo‘lida bergaymen”. Tazkirada Junayd Bag‘dodiyning Sh.A. haqidagi e’tiroflariga alohida o‘rin ajratilgan: “Abubakr Shibliyg‘a boshqalarga nazar qilganingizdek nazar qilmang. Chunki u Alloh ko‘zlaridan bir ko‘zdir”. Shuningdek, Shayx Junayd Bag‘dodiy Sh.A.ni o‘z qavmining toji, deb ataganligi ham qayd qilingan. “N.M.”da Sh.A.ning “Hurriyat – qalb hurriyatidir, boshqa narsa emas”, “Zohir ko‘zni haromlardan, botin ko‘zni esa Allohdan boshqasiga nazar solishdan saqlang” kabi ibratli pandlari ham keltirilgan. Tazkiradan Sh.A. hazratlarining so‘fiylikka zid o‘laroq semizliklari ma’lum bo‘ladi. Ammo u kishining semizliklari haqidagi izohlari ham ma’naviy martabalari xususida tasavvurni oydinlashtiradi: “Anga dedilar: xush semizsen va muhabbatiki sen da’vo qilursen, taqozoye semizlik qilmas. Dedikim: “Qalbim ishqbozlik qildi, tanim bexabar qoldi. Agar xabardor bo‘lganda semirmas edi!” N. “N.M.”da valiylarning bir-birlari haqida ta’rif-tavsiflari orqali ham ularning hol va maqomlari, o‘ziga xos fazilatlarini ko‘rsatadi. Duniy (q.s.) to‘g‘risida to‘xtalarkan, Sh.A. holi haqida shunday deydi: “Xaraqoniy ayttikim, men ayttimki, ul Shibliy erdikim, mast keldi va mast kettiki, men ani o‘z qoshimda ko‘rdumki, havoda raqs qilur erdi va manga shukr der erdi”.

Inson o‘zining ko‘ngil mohiyatini mushohada etishi bosh masaladur. Chunki u baytullohdir. N. aytadi: “Shibliydin so‘rdilarki, qaysi nima ajabroq? Dedi: Ul ko‘ngulki, Tengri taolosini tanig‘ay va onga osiy bo‘lg‘ay”.

Ma’lumki, ulug‘ avliyolar, aziz zotlarga Alloh taolo odatdan tashqari ishlarni amalga oshirish ne’matini ato qiladi. Bu karomat, tush, kashf, ilhom kabi sharafli ne’matlardir. Tazkirada Sh.A. hayoti misolida unga berilgan fazl haqida hikoya qilinadi. Unga ko‘ra, Sh.A. o‘lim to‘shagida yotgan mahalda bir xodimi Bakir Dinavariydan masjidga olib borishni iltimos qiladi. Yo‘lda bir odamga duch kelishadi. Sh.A. tongda shu odam b-n bir ishi bor ekanligini aytadi va o‘sha oqshom vafot etadi. Uning g‘usli u-n keltirilishi kerak bo‘lgan inson o‘sha kuni masjid yo‘lida uchragan solih edi. N. Sh.A.ning 87 yoshda hijriy 334-y. hayotdan ko‘z yumganini aytadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ислом энциклопедияси. – Т., 2017; Фариддин Аттор. Тазкират ул-авлиё. – Истанбул, 1991.*

H.H.

SHIS (a.s) – N.ning yozishicha, Odam (a.s.) Hobil firoqida ko‘b betoqat bo‘lgandan keyin Haq taolo Odam (a.s.)ga muruvvat ko‘rsatib, Sh. (a.s.)ni bergan va Sh. (a.s.)ning muhabbati Odam (a.s.)ning Hobil motamidagi iztirobini kam qilgan. Odam (a.s.) Sh. (a.s.)ni Iqlimo degan farzandlaridan biriga uylantirib qo‘ygan va uni o‘z o‘rnida valiahd qilib qoldirgan. Alloh taolo Sh. (a.s.)ga payg‘ambarlikni ato qilgan, xabarlarga

ko‘ra, unga ellik sahifalik kitob ham tushirgan. Sh. (a.s.) Ka’ba binosini tosh va ganch bilan qorishtirib, imorat qilgan. Uning yettita o‘g‘li bo‘lgan. Nubuvvatidan qirq besh yil o‘tgach, farzandlariga Qobil avlodi tomonidan bo‘ladigan har qanday urush va zararlarni daf qilishni vasiyat qilgan. Katta o‘g‘li Anushni o‘z o‘rnida valiahd qilib, olamdan o‘tgan. Uni Abu Qubays tog‘iga Odam (a.s.) yoniga dafn qilganlar. Manbalarga qaraganda, 912 yil umr ko‘rgan.

Rabg‘uziy Sh. (a.s.)ning Qobildan bir yuz o‘ttiz yil o‘tgandan keyin tug‘ilganini aytadi. Ayrim manbalarda aytilishicha, Sh. (a.s.) suryoniy tilida “Hibatulloh”, ya’ni “Tangri atosi” demakdir. Chunki Shis (a.s.) tug‘ilgan paytda Jabroil (a.s.) “Bu Hobilning o‘rniga Allohning bergan hadyasidir” , degan ekan.

N. u haqidagi ma’lumotlarni quyidagi ruboiy bilan yakunlaydi:

Gar Shis va gar Qobil erur, gar Hobil,
Yoshlari agar yuz yil erur, gar ming yil,

Bir necha kun etsalar jahonda ta’til,
Oxir borig‘a ajal buyurur ta’jil.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Носириддин Бурҳониддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. – Т., 1990; Обидов Р. Пайғамбарлар тарихи исломият тарихидир. 2 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2005.*

S.R.

SHIFOIYA – “Dor ush-shifo” (Shifo saroyi) muolaja markazi, tibbiyot madrasasi. N.ning o‘z mablag‘lari hisobidan Hirotda qurdirgan tibgoh. Xondamir “Xulosat ul-axbor”da Hirotning tashqari qismidagi Jome’ masjidni ta’riflar ekan, Dor ush-shifo mazkur jome’ masjidining janub tarafida bag‘oyat latofat va nazokat bilan qurilganini qayd qilib: “O‘sha jannat misol binolar oralig‘ida kavsar misol bir hovuz ham qurilgan bo‘lib, xizrmaqom hakimlar hamda Isodamlik tabiblar doimo g‘ariblar va bemorlarni muolaja qilish bilan mashg‘uldirlar”, – deydi. Sh. haqida “Makorim ul-axloq”da ham ayrim qaydlar mavjud. Jumladan, “Injil arig‘i bo‘yida, Ixlosiya madrasasining g‘arbiy tomonida qurilgan bo‘lib, nihoyatda toza va sarishta davo maskani bo‘lgan. Hirot ta’rifida Zahiriddin Muhammad Bobur bu xususda: “... dorush-shifosinikim “Shifoiya” derlar”, – deya tasvirlaydi. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, mazkur shifo maskanida Mavlono Nizomiddin Abdulhay tabib, Mavlono Darvesh Ali tabib, Mavlono G‘iyosuddin Muhammad tabib, Mavlono Muhammad Mu’in kabi tabobat ilmida zamonasining eng ilg‘or vakillari xizmat qilgan.

N. “F.K.” va “M.N.”da Sh.ni “Dor ush-shifo”, – deya qalamga olgan o‘rinlar mavjud. Xususan, “M.N.”da Mavlono Bayzoiy haqidagi ta’rifda: *“Mahmud Barlos Hisordin elchilikka kelganda bila kelib erdi. Ul borg‘onda xasta bo‘lub qoldi. “Dor ush-shifo”da muhofizatin qilg‘ondin so‘ngra sihat topib, Yana Hisorg‘a bordi”,* – deb qayd qilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 1989; Ғиёсиддин Хондамир. “Макорим ул-ахлоқ”. – Т., 2018; Навоий замондошлари хотирасида. Тузувчи: Б.Ахмедов. – Т., 1985.*

E.Q.

SHODIYEV ERGASHALI (1932–2005) – f.f.d-ri (1973) prof. (1973). Sharqshunoslar assotsiatsiyasi a’zosi (1983), Tojikiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan fan va texnika arbobi (1996), Tojikiston Xalq maorifi a’lochisi (1973). Xo‘jand davlat pedagogika instituti (hozirgi Xo‘jand davlat universiteti)ni tugatib (1955), shu yerda ishlagan. Laborant (1953–56), o‘qituvchi (1956–58), katta o‘qituvchi (1959–66), dotsent (1966–72), kafedra mudiri (1967–69), katta ilmiy xodim (1970–72), o‘zbek adabiyoti kafedra-

si prof.i (1973–2005). 40 dan ortiq monografiya, to‘plam, broshyura, o‘quv qo‘llanmalari va 400 ga yaqin maqolalar muallifi.

Sh.E. tadqiqotlarining katta qismi n.shunoslikka bag‘ishlangan. Olimning N.ning tojik adabiyotiga munosabati, fors-tojik tilidagi asarlari; Tojikistonda n.shunoslik, tojik shoirlari va N. adabiy aloqalari tadqiq etilgan ilmiy ishlari shu jihatdan e’tiborlidir. Sh.E. N.ning Foniy taxallusidan tashqari, “Fano” va “Fanoiy” taxalluslari b-n ham ijod etganligini birinchi bo‘lib asoslab bergan edi. Shuningdek, Sh.E. tadqiqotlarida N. ijodidagi tojik shoirlari Abulqosim Firdavsiy, Sa’diy Sheroziy, Hofiz Sheroziy, Kamol Xo‘jandiy, Abdurahmon Jomiy an’analari, N.ga yosh zamondosh bo‘lgan tojik shoirlari Kamoliddin Osafiy, Zayniddin Vosifiy, Kamoliddin Binoiy, Abdulloh Xotifiy ijodida N. an’analari yangi ilmiy ma’lumotlar asosida tahlil etilgan.

Sh.E. ilmiy faoliyati tadqiqot doirasining kengligi va topilmalarga boyligi b-n ajralib turadi. Chunonchi, adabiyotshunoslikka ma’lum bo‘lmagan Bibisharifa Ojiz, Nozil, Shaydo, Lisoniy, Zinnat, Rosix, Nuzxat, Favziy, Sho‘xiy, Bifazilat, Mahzun, Muxlis, Zebo kabilar ijodi ilk marta Sh.E. tomonidan o‘rganildi. Sh.E. Xo‘jand adabiy muhitining ilk tadqiqotchisi sifatida o‘zbek va tojik tillarida Xo‘jand shoirlari tazkirasini yaratib, ularda XII–XIX asrlarda yashagan 30 dan ortiq shoirlarning hech kimga ma’lum bo‘lmagan asarlarini o‘quvchilarga taqdim etdi. Bulardan tashqari, Muqimiy, Furqat, Zavqiy va Hamzaning Xo‘jand adabiy muhiti bilan aloqasi va Xo‘jandda yaratgan asarlari haqidagi ilmiy yangiliklarni ham birinchi marta Sh.E. fan olamiga olib kirgan edi.

Ad.: *Алишер Навоийнинг тожик адабиётига муносабати масаласига доир. – Хўжанд, 1964; Алишер Навоий ва унинг салафлари. – Хўжанд, 1967; Алишери Навои. – Хўжанд, 1968; Навоий ва ёш тожик адиблари. – Хўжанд, 1969; Ҳамза ва тожик адабиёти. – Хўжанд, 1969; Ўзбек-тожик адабий алоқалари тарихидан. – Т., 1973; Тожикистонда Навоийни ўрганиш. – Хўжанд, 1985.*

S.O‘.

SHOMUHAMEDOV ALISHER SHO-ISLOMOVICH – (01.03.1953, Toshkent) 1975-y. da ToshDUning Sharq fakultetini tugalladi. F.f.n. (1981), dotsent (1985). 1974–76-yy.da Eronda ishladi, 1976–1979-yy.da O‘zR FA Qo‘lyozmalar institutida ilmiy xodim, 1979-y.dan umrining oxirigacha Sharq fakulteti o‘qituvchisi. 30 dan ortiq maqolalar muallifi.

Sh.A.Sh. “Navoiy ijodida tatabbu’” (Foniy va Jomiy g‘azallari timsolida) mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi va bu ishini 1981-y. da nashrdan chiqardi.

Sharq she’riyatida va, xususan, N. lirik ijodida tatabbu’ an’analari yuzasidan qator maqolalar e’lon qildi. N. tatabbu’larining mohiyati, shoir ijodiyotida o‘ynagan roli, uning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berdi.

Ad.: *Шомуҳамедов А. Татаббуъ в творчестве Алишера Навои (на примерах татаббуъат Фани на газели Джами). – Т., 1984; Некоторые особенности татаббуъат Алишера Навои. В кн. Актуальные проблемы иранск. Филологии. – Душанбе, 1985; Об изучении “Диван-е Фани”, научн. труды ТашГУ. Востоковедение. – Т., 1990.*

S.G‘.

SHOMUHAMEDOV SHOISLOM MAHMUDOVICH – **(**16.04.1921, Toshkent, 2007) – sharqshunos, eronshunos olim. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi (1978), f.f. d-ri (1968), prof. (1970). Firdavsiy nomidagi xalqaro mukofot laureati (1973), “El-yurt hurmati” ordeni sohibi (1998). U O‘rta Osiyo Davlat universiteti sharqshunoslik fakultetida o‘qituvchi, dotsent (1958-60), fakultet dekani (1960–1972-yy.), universitetning ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori (1972–1985-yy.), kafedra prof.i (1985-y.dan),

Toshkent davlat sharqshunoslik institutida kafedra prof.i bo‘lib ishlagan.

Sh.Sh.M.ning tarjimonlik faoliyati ham g‘oyat samarali bo‘lib, Ibn Sino, Firdavsiy, Umar Xayyom, Sa’diy, Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Bedil, Hofiz, Jomiy kabi ulug‘ fors-tojik shoirlarining asarlarini tarjima qilgan. N.ning Jomiy vafotiga marsiyasini ham o‘zbek tiliga mahorat b-n o‘girgan (1977) qilgan. Shuningdek, “Navoiy hikmatli so‘zlari”ni (1968), “Navoiy she’riyati” (1977) va ayni shu kitobchani rus tilida (1978) ham o‘quvchilarga yetkazgan.

Sh.Sh.M. “D.F.” nashri munosabati b-n “Народы Азии и Африки” jurnalida N.ning forsiy she’riyati tahliliga bag‘ishlangan maqola e’lon qilgan (1968).

Sh.Sh.M. N.ning “D.F.”si borasidagi tadqiqoti “O‘zbek adabiyoti” 2-jildida kiritilgan. Tadqiqoti davomida g‘oyat ko‘p qiziqarli ma’lumotlarni aniqlagan. Ma’lumki, N.ning “D.F.”ga kiritilgan 554 ta g‘azalidan 237 tasi Hofiz Sheroziyga, 52 tasi Abdurahmon Jomiyga, 32 tasi Amir Xusrav Dehlaviyga, 25 tasi Sa’diy Sheroziyga, 5 tasi Mavlono Kotibiyga, 4 tasi Mavlono Shohiyga, 4 tasi Kamol Xo‘jandiyga, 2 tasi Amir Vafoiyga nazira, tatabbu’ tariqasida yozilgan. Sh.Sh.M. S.Ayniy, H. Sulaymon, A.Mirzoyev, Hodizoda R. tadqiqotlariga ergashib, “D.F.”ning yaratilishi, yuzaga kelish sabablari, shuningdek, N. ijodida davriy an’analari va tatabbu’larining janr xususiyati, obrazlar olami, vazni, qofiya, radifi hamda tatabbu’lar kimga qaratilganligi xususida alohida tadqiqotlarni amalga oshirgan. Sh.Sh.M. ikki buyuk shoir N. va Jomiyning do‘stligi hamda ijodiy hamkorligi haqida qator maqolalar muallifi hamdir.

N. asarlarida yuksak ehtirom b-n tilga olgan Firdavsiy Tusiyning muhtasham “Shohnoma”sini mahorat b-n fors tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilgan va nashr ettirgan (1975–1979). Olim N. nomi, ibratli hayoti, sermahsul ijodi, asarlari tilga olingan Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston”ini ham fors tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilgan va chop ettirgan. Kitobga izoh va sharhlarni o‘g‘li A.Shomuhamedov yozgan.

1998-y.da Sh.Sh.M. olim, shoir hamda tarjimon sifatida mumtoz va hozirgi zamon Eron adabiyoti bo‘yicha tadqiqotlar, o‘quv qo‘llanmalari, fors adabiyoti tarixi va darslik, nazariy qo‘llanmalar hamda 200 dan ortiq maqolalar e’lon qilgan, aniqrog‘i, umumiy hisobda 90 ga yaqin kitob yaratgan. U tarjimon sifatida o‘nlab Sharq shoirlari asarlarining o‘zbek xalqi ma’naviy mulkiga aylanishiga ulkan hissa qo‘shgan.

Ad.: *Ўзбек адабиёти тарихи. 5 томлик. 2-том. – Т., 1978; Жомий. “Баҳористон” (Форс тилидан Шоислом Шомуҳамедов таржимаси). – Т., 2019.*

S.G‘.

SHOPUR – N.ning “F.Sh.” dostonidagi asosiy obrazlardan biri. Xamsachilikka asos solgan Nizomiydan boshlab Sh. “Xamsa”larning asosiy qahramoniga aylangan. Nizomiyning “Xisrav va Shirin”ida Sh. Xisravning murabbiysi, do‘sti va homiysi, qissaxoni, uning Shirin b-n munosabatlarida vositachi va ko‘makchi sifatida gavdalanadi. Salaflarining ayni mavzudagi asarlari syujetiga to‘xtalar ekan, bu haqda shoir, jumladan, shunday deydi:

Ichib gah Borbad lahni bila may,
Gahi Shopur daston deb rayoray.

Xusrav Dehlaviy dostonida Sh. shohning eng yaqin nadimi va roviysidir. Xisravga Shirinni ta’riflab, uning suratini ko‘rsatib, arman mulkiga boshlaydi.

N. dostonida Sh. yetakchi obrazga aylanadi. Chin yurtidan dengiz safariga chiqqan Farhod halokatga uchrab, to‘fon uning siniq qayig‘ini Yaman sari surganida Farhodni qutqargan kema ahli orasida Sh. ham bor edi. Sh. – mohir musavvir, jahongashta donishmand odam. Yurtma-yurt kezib, ko‘pni ko‘rgan, katta hayotiy tajriba va nozik kuzatishlar sohibi bo‘lganidan beqiyos insoniy fazilatlarni o‘zida mujassam etgan bu “xiradmandi zamona” bir ko‘rishdayoq Farhodning

ko‘nglida pinhon bir dardi borligini sezadi va uning ko‘ngliga qo‘l solib, siridan ogoh bo‘ladi:

Bu xayl ichra bor erdi rahnavarde,
Musofirshevayi ozoda marde.

Hunar bobida ustodi zamona,
Zamona ichra naqqoshi yagona...

Jahon mulkin kezib kishvar-bakishvar,
Hududi boxtardin to ba xovar.

Xito mulkiga ham tushgan guzori,
Kelib ollig‘a Moniy dastkori...

Qalam ahlig‘a oning tarhi dastur,
Jahon ahli debon otini Shopur.

Sh. va Farhod darhol do‘stlashib, bir-birini ko‘rmasa turolmaydigan darajaga yetishadi. Sayohatlari davomida arman yurtida ham bo‘lgan, Shirin ta’rifini ham eshitgan Sh.:

Hamul ganjeki, bo‘lmishdir umiding,
Yetishgay qufliga mendin kaliding, –

deb unga oyinada ko‘rgan mulki suratini chizib ko‘rsatadi va uni o‘sha Erammonand yurtga olib boradi. Tog‘ni qazib, Shirin yashagan qal’aga suv keltirishida ham, Shirin b-n bo‘lgan muhabbat mojarosida ham, qisqasi, umrining oxirigacha u b-n birga bo‘lib, unga jonini fido qiladi.

Shirinni ko‘riboq hushidan ketib yiqilganida ham Sh. joniga ora kiradi. Farhodni behushdori yordamida hushidan judo qilib, Xisravga tutqun qilib bergan hiylagar makkorni tosh b-n urib o‘ldiradi. Farhod Salosil qo‘rg‘onida bandiligida oshiq-ma’shuq o‘rtasida elchi bo‘lib, ularning maktublarini bir-birlariga yetkazadi. Bundan xabar topgan Xisrav uni qo‘lga olib, bandi qiladi. Shirinning iltimosi b-n tutqunlikdan xalos bo‘lgan Sh. Farhodning jasadini topib keladi. U dafn qilinganidan keyin qabri ustida ko‘kaldoshi Bahrom b-n birga mujovir bo‘lib oladi.

Farhod tog‘ni qazib, suv chiqarganida ham, arman mulkini Xisrav Parvez hujumidan himoya qilganida ham, Mehinbonu va Shirin b-n uchrashuvlarida ham yonida hamkor va maslahatchi bo‘ladi.

Farhod o‘limidan keyin Mehinbonu va Shirinning sirdoshi va suyanchig‘i bo‘lib qoladi.

Bahrom va Sheruya o‘rtasida elchilik qiladi.

Beqiyos insoniyligi va olijanobligi b-n Farhodning barcha ishlarida madadkorlik qilgan Sh. majozan maqsad yo‘lida unga rahnamolik qilgan buyuk hodiydir.

Sh. “F.Sh.” dostonida chin do‘stlik va haqiqiy sadoqat timsoli sifatida gavdalanadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т., 1976; Сирожиддинов Ш., Юсупова Д., Давлатов О. Навоийшунослик. – Т., 2018.*

E.O., M.M.

SHOPURI ZULAKTOF (Shopur II, 309–379-yy.) – N.ning “T.M.A.” asarida zikr etilgan sosoniy hukmdor. Otasi Hurmuz edi. N. Sh.Z.ni aqlli, lekin qahri qattiq kishi sifatida tasvirlaydi. “T.M.A.”da uning yoshligi va bolalik chog‘i haqida ma’lumotlar ham keltirilgan, chunki u go‘daklik paytida podshoh deb e’lon qilingan edi. N.ning yozishicha, Sh.Z.ning yoshligidan foydalangan arab podshosi Toir mamlakatning katta qismini bosib olgan va ko‘p vayrongarchiliklar qilgan. Sh.Z. yigit bo‘lgandan so‘ng arablarga qarshi yurish qilib, ulardan o‘ch olgan. Ko‘p arablar qirib tashlangan yoki azob-uqubatlar b-n o‘ldirilgan. Shu voqeadan so‘ng Sh.ga “Zulaktof” deb laqab berganlar: va buzuqliq qilgan a’rob qasdig‘a buyurdi va ko‘p ta’ziyat bila o‘lturur erdi. Bu jihatdin ani Zulaktof dedilar”. N.ning yozishicha, Sh.Z. yashirincha safar qilib Rumga borgan. U yerda uni tanib qolganlar va u hibsga olingan. Qaysarning buyrug‘i b-n Sh.Z. ni mol terisiga o‘rab tikib qo‘yganlar. Qaysar uni shu ahvolda olib yurib, Eronni istilo qilgan.

Sh.Z. qochishga muvaffaq bo‘lgan va Qazvinga kelgan. U qaytadan lashkar to‘plagan hamda qaysar b-n urushib g‘olib chiqqan.

N. Sh.Z., deb zikr etgan ushbu hukmdorni tarixchi olimlar Shopur II deb ataydilar. Tarixiy manbalardagi ma’lumotlarga ko‘ra, u otasi Xurmuzd II o‘lgandan so‘ng, go‘daklik paytida shoh deb e’lon qilingan. Bu ma’lumotlar N. asaridagi ma’lumotlarga mos keladi. Davlat ishlarini bu paytda, asosan, onasi olib borgan. Voyaga yetgandan so‘ng barcha ishlarni o‘z qo‘liga olgan. Sh.Z. Mesopotamiyani o‘z davlatiga qo‘shib olishga intilgan. Demak, N.ning “T.M.A.” da Sh.Z. b-n arablar o‘rtasidagi urush va nizolar haqida yozgan so‘zlari muayyan tarixiy asosga ega. Sh.Z.ning bu intilishlariga Vizantiya imperatori Konstansiy to‘sqinlik qilgan. 361-y.da Konstansiy vafot etgan. Undan keyin taxtga o‘tirgan Yulian Sosoniylar davlatiga qarshi urush e’lon qilgan. Urushda u yengilgan va halok bo‘lgan.

Mana shu o‘rinda tadqiqotchilar bergan ma’lumot bilan “T.M.A.”dagi ma’lumotlar o‘rtasida farq ko‘zga tashlanadi. N.ning yozishicha, imperator halok bo‘lmagan, balki Sh.Z. tomonidan asir qilib olingan. Sulh tuzilgach, u ozod qilingan va yarash shartlariga binoan urush tufayli vayron bo‘lgan yerlarni Vizantiya hisobidan tiklab, obod qilib bergan. Shopur II 379-y.da vafot etgan. U, yuqorida aytilganidek, go‘daklik paytida hukmdor deb e’lon qilingani u-n yashagan yoshi b-n hukmdorlik muddati teng, ya’ni yetmish yil yashagan va yetmish yil taxtda o‘tirgan. Bu ma’lumotni N. ham tasdiqlaydi va “...saltanatining muddati yetmish yil erdi va ba’zi yetmish ikki debdurlar” deb yozadi.

Sh.Z.ni N. “S.I.”dostonining sosoniylarga bag‘ishlangan XIV bobida ham tilga olgan. Bu o‘rinda N. uni “Shopuri Hurmuz” deb ataydi;

Yana yetti Shopuri Hurmuzg‘a zo‘r,
Ki. soldi sipoh birla olamg‘a sho‘r.

Ad.: *Алишер Навоий. Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Пигулевская Н.В., Якубовский А.Ю., Петрушевский И.П., Строева Л.В., Беленицский Д.М. История Ирана с древнейших времен до конца XVI-II века. – Л., 1958; Грантовский Э.А., и др. История Ирана. – М., 1972.*

Q.E.

SHOHBAYT – Ohoriy, ta’sirchan baytlardan tashkil topgan, yuksak mushohada hamda teran mazmunga boy, shakl va mazmun jihatdan ta’sirli, badiiyati yuqori, san’atkorlik bilan aytilgan, she’rdagi eng sara bayt.

Aslini olganda, g‘azal yoki qasidaning eng go‘zal, eng teran, eng yetuk bayti. “Shohbayt qasida yoki g‘azalda o‘zining salmoqli ma’nosi, jozibali yorqin uslubi bilan boshqa barcha baytlardan ajralib turadi. Ana shunday bayt matla’ sifatida husni matla’ va maqta’ shaklida kelganda esa husni maqta’ deb yuritiladi”. (Y. Is’hoqov) Aytish joizki, Sh. qasida va g‘azallarda o‘zining salmoqli ma’nosi, kitobxon yoxud tinglovchi diqqatini jalb qilishi, jozibali yorqin uslubi b-n boshqa barcha baytlardan ajralib turadi. Sh. ko‘p hollarda g‘azalning oxirida, asosan, maqta’dan oldingi bayt sifatida keladi hamda falsafiy xulosa shakliga ega bo‘lib, ijtimoiy-axloqiy mazmuni va uslubiy tugallangan bo‘ladi. Bunday bayt matla’ sifatida kelsa, san’at sifatida husni matla’ va maqta’ shaklida kelganda esa husni maqta’, deb yuritiladi. Ma’lumki, Sharqda badiiy so‘zning nufuzi nihoyatda baland bo‘lgan – favqulodda tashbehlar, kutilmagan iboralar, nafis lutflar, nozik qochirimlar juda qadrlangan, badiiy kashfiyot darajadasidagi she’r va baytlar tildan tilga, kitobdan kitobga ko‘chib yurgan. Shaklan go‘zal, mazmunan teran, badiiy jihatdan mukammal, qasida yoki g‘azalning asosiy mohiyati, yetakchi g‘oyasini o‘zida mujassam etgan baytlar mumtoz adabiyotda “shohbayt” sifatida yuksak baholangan. Jumladan, Shayx Sa’diyning bir bayti, hatto Alloh taologa xush kelib, farishtalari orqali unga nur to‘la tabaqlar yo‘llagani rivoyat qilinadi. Shoh-u amirlar o‘zlariga yoqqan

bir she’r yo bayt u-n shoirning og‘zini dur-u javohirga to‘ldirganlari haqida hikoyatlar saqlanib qolgan. Xo‘ja Hofizning Samarqand-u Buxoroni bir go‘zalning xoliga bag‘ishlab yuborgan bayti avval Amir Temurning qahri, keyin mehriga sazovor bo‘lgani mojarosi barchaga ma’lum. Atoiyning mashhur:

Ul sanamkim, suv yaqosinda paritek o‘lturur,
G‘oyati nozuklukindin suv bila yutsa bo‘lur, –

misralari hali-hanuz kishini hayrat va hayajonga solib keladi. Yosh N.ning birgina baytiga o‘z davrining malik ul-kalomi bo‘lgan Lutfiy butun boshli devonini almashmoqchi bo‘lgan. Imora degan shoirning: “Mahbubam o‘qiyotgan paytida misralar qatidan chiqib, lablaridan o‘pib olish uchun o‘z g‘azalimning ichiga bekinib olishni istayman” mazmunidagi baytini bir davrada eshitgan mashhur tariqat piri Abusaid Abulxayr shartta o‘rnidan turib, uning ziyoratiga yo‘l olgan.

G‘azal binosining poydevori matla’ bo‘lgani u-n shoirlar matla’ga katta mas’uliyat b-n yondashib, uning go‘zal va barkamol chiqishiga intilganlar. Aytish mumkinki, matla’dan qanoat hosil qilmay turib, g‘azalning o‘ziga kirishmaganlar. Shuning u-n ham, asosan, matla’lar Sh. darajasiga ko‘tarilgan. Tazkiralarda shoirlarning mahorati mezoni sifatida ko‘pincha matla’larning keltirilishi bejiz emas.

Adabiyotni so‘zdan mo‘jiza yaratish san’ati, deb bilgan N. har bir asari ustida zargarona ter to‘kkan, har bir so‘zni she’r uzugi ko‘ziga gavharday mahorat b-n qo‘ndirgan. Shuning u-n ham “X.M.” devonlar turkumidan joy olgan 2600 g‘azal matla’sining hammasi ham Sh. darajasida deyish mumkin. M-n:

Yor og‘iz ochmasqa dardim
so‘rg‘ali toptim sabab,
Ko‘p chuchukluktin yopushmishlar
magar ul ikki lab.

Bu bayt Sharq she’riyatida mashhur husni ta’lil san’atining betakror namunasi. Ma’lumki, bu san’at vositasida keltirilgan dalil ifodalangan fikrning haqiqiy sababi bo‘lmasa-da, u o‘zining badiiy go‘zalligi b-n kishida zavq uyg‘otadi, e’tiborni tortadi. M-n, keltirilgan baytda ma’shuqaning oshiq ahvolini so‘ramasligiga lablarining azbaroyi shirinligidan bir-biriga yopishib qolganligi sabab qilib ko‘rsatiladi. Albatta, bu haqiqat emas, balki “go‘zal yolg‘on”, lekin ushbu tashbeh o‘zining badiiy go‘zalligi, nozikligi, ohorliligi b-n o‘quvchini hayratga soladi.

Yoki:

Husni ortar yuzda zulfin anbarafshon aylagach,
Sham’ravshanroq bo‘lur torin parishon aylagach.

Sham shunday ham yonib, yorug‘lik taratadi, lekin piligi tolalarini yozib yuborsa, uning yonish doirasi kengayib, yorug‘ligi kuchayadi va kengroq sahnni yoritadi. Shunga o‘xshab, mahbubaning sochi shunday ham husniga husn qo‘shadi, shunday ham undan muattar hid taraladi, lekin uni yozib yuborsa, ham hidi gurkirab ketadi, ham chiroyini yanada ochadi va oshiqlari safi yanada ko‘payadi.

Sh. faqat matla’da emas, badiiy barkamol g‘azallarning xohlagan joyida kelishi mumkin. Lekin ko‘proq maqta’dan oldingi baytda keladi. Chunki maqta’dan oldingi bayt ko‘pincha g‘azalning kulminatsion nuqtasi hisoblanadi. Ba’zan maqta’da ham keladi. Jumladan:

Ey Navoiy, er esang dunyo arusin qil taloq,
Bir yo‘li bo‘lma zabun bu zoli makkor ollida.

Ma’lumki, dunyoni qoralash, tanqid qilish – mumtoz adabiyotda asosiy o‘rin tutadi. Bu diniy-tasavvufiy qarashlar b-n bog‘liq. Unga ko‘ra, dunyoga ortiqcha mehr qo‘yish insonni Haq yo‘ldan ozdiradi, Parvardigoridan begonalashib, tubanlashuviga sabab bo‘ladi. Shuning u-n ham so‘fiyona adabiyotda dunyo ko‘pincha noz-u ishva b-n oshiqlarini yo‘ldan uradigan, lekin hech kimga vafo qilmaydigan xiyonatkor ma’shuqaga o‘xshatiladi; paranji-chachvon ichida go‘yoki

sarvqad va go‘zal ko‘rinadigan, aslida esa qaddi bukchaygan, tishlari to‘kilgan qari kampirga qiyoslanadi; talabgorlarini sehr-u jodu b-n tuzoqqa tushirib, o‘z yo‘rig‘iga yurgizadigan, xohlagan ko‘yiga soladigan jodugar, alvasti, zol, ajuza qiyofalarida tasvirlanadi. Barcha yomonlik, yolg‘on, riyo timsoli bo‘lganligi u-n ham shoir o‘z-o‘ziga, ayni paytda o‘quvchiga, ya’ni barchaga murojaat qilib, o‘zini mard deb bilgan kishi dunyo makkorasining asiriga aylanib, xor-u zor bo‘lmaslik u-n uni taloq qilishi lozimligini ta’kidlamoqda. Bu – g‘azaldagi eng muhim, eng kuchli bayt. Bu – g‘azalning kulminatsion nuqtasi.

Mana bu shohbayt esa g‘azalning o‘rtasida kelgan:

Ursa dushman zaxm,
erur marham tavaqqo‘ do‘stdin,
Ikkisizaxmursa,tongyo‘q,chok-choko‘lmoqtanim.

Maz.: Dushman urib, jarohat yetkazsa, do‘stning malham qo‘yishidan umid qilaman, lekin har ikkalasidan zaxm etsa, tanimning chok-chok bo‘lishidan boshqa iloji yo‘q.

Bu bayt ham do‘st-u dushman qiyosiga bag‘ishlangan g‘azalning eng asosiy hal qiluvchi bayti hisoblanadi.

Maqta’dan oldingi Sh.ga misol:

Ey falak, qaysi quyosh yuzlukni bir kun charx uza
Jilvalar qildingki,
oqshom yerga pinhon qilmading?

Falakning bevafoligi-yu inson umrining o‘tkinchiligi haqidagi haqiqatni teran ifodalagani jihatidan hikmat darajasiga ko‘tarilgan ushbu bayt, shubhasiz, Sh.dir.

Ma’lum bo‘ladiki, Sh. g‘azal (yoki qasida) ni g‘azal qilib turgan, uni yozishdan asosiy maqsad hisoblangan eng go‘zal, eng teran, eng yetuk bayti bo‘libgina qolmay, ayni paytda shoir mahoratining o‘ziga xos namoyishi, iste’dod qudratini belgilovchi o‘ziga xos mezon hamdir.

Sh. hamma davrlarda so‘z ustalari, adab ahli, she’riyat shinavandalari tomonidan yuksak baholangan. Sh.da ko‘pincha teran hayot haqiqati va quyuq falsafiy hikmat o‘zining betakror badiiy talqinini topadi. So‘zning butun nazokati va nafosati, fikrning eng teran va rang-barang qirralarini o‘zida mujassam etgan bunday baytlar mo‘jiza darajasida bo‘ladi. Sh.lar badiiy tafakkur taraqqiyotiga, estetik did yuksalishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shoirlar Sh.lar asosida she’rlar yozib, ularda ifodalangan qavat-qavat ma’no qirralarini kashf etishga harakat qiladilar.

N.ning o‘zi Sh. atamasini o‘rni b-n qo‘llaydi:

Bo‘ldi, chu shoh surdi isloh etarga xoma,
Har bayti – shohbayte, har noma – shohnoma.

Sh. boshqa baytlarga nisbatan ohangdor, tasvirda rangdor bo‘lishi b-n birga she’rxonning ong va idrokiga kuchli ta’sir o‘tkazadi, falsafiy mushohadaga chorlaydi. N. ijodida Sh.ning go‘zal namunalari ko‘p uchraydi. Xususan, “G‘.S.” devonidan joy olgan “Qaro ko‘zim”, – deb boshlanadigan mashhur g‘azalidagi maqta’dan ikki bayt oldin kelgan quyidagi misralar shohbayt sanaladi.

Xazon sipohig‘a, ey bog‘bon, emas mone’,
Bu bog‘ tomida gar ignadin tikan qilg‘il.

Yoxud: “F.K.” devonidagi 73 g‘azaldagi mazkur misralar ham shohbaytga misol bo‘ladi:

Xalqdin har yaramas kelsa, xush ulkim, Haqg‘a
Desa bo‘lmas, mening uchun yana bir xalq yarot.

N. devonlarida Sh.lar durday terilib, olmosday tovlanib turadi va har biri mutafakkir shoirning mahoratini ko‘rsatishga xizmat qiladi.

Firoq vaqtidur, ey ko‘zlar, emdi qon yig‘lang,
Bilurmusizki, bu kun ne kishidin ayrilasiz?

Kimki bir ko‘ngli buzug‘ning xotirin shod aylagay,
Oncha borkim, Ka’ba vayron bo‘lsa, obod aylagay.

Ulug‘lardin nasib istar esang, kasbi kamol etgil,
Nedinkim, anbiyog‘a ilmliq inson erur voris.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. 10 жилдлик, 2-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик, 3-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011; Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т., 2006; Ҳаққул И. Шоҳбайт − энг порлоқ байт // Алишер Навоий. Шоҳбайтлар. – Т., 2007; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 3. – Душанбе, 2004; Ё. Исҳоқов. Сўз санъати сўзлиги. – Т., 2014; Навоий асарлари луғати. – Т., 2011.*

I.H., E.O.

SHOH BADAXSHON (t.y.n. − Badaxshon, 1467) − shoh, shoir. Bu qadimiy xonadon, N. “M.N.”da ma’lumot berishicha, ming yillar davomida Badaxshon saltanatida hukmronlik qilib kelgan. Abusaid mirzo bu oilani tag-tomiri b-n yo‘qotib, mol-mulkini egallaydi. Sh.B. va uning o‘g‘li Ibn La’liyni qatl ettiradi. Mozori Shayx Zaynuddinda.

Sh.B. La’liy taxallusi b-n ijod qilgan iste’dodli shoir bo‘lib, devon ham tuzgan. Lekin devoni hali topilmagan. N. uning iste’dodiga dalil sifatida quyidagi baytini keltiradi:

Mo ba savdoyi tu tarki jonu sar xohem kard,
Komi jon har dam zi la’lat purshakar xohem kard.

Tarj.: Biz sening g‘amingda jonimiz-u boshimizni tark etishni, jon og‘zini har lahza labingdan shakarlarga to‘ldirishni xohlaymiz.

Mana bu bayti ham ohorli tashbeh asosiga qurilgan bo‘lib, o‘quvchi e’tiborini yarq etib o‘ziga tortadi:

Ba rahguzari tu chun xoki rah shavam, tarsam,
Ki magzari ba man-u bigzari ba rohi digar.

Tarj.: Sen o‘tadigan yo‘lning tuprog‘i bo‘lishni xohlayman-u, lekin mening ustimdan bosib o‘tmay, boshqa yo‘ldan ketasanmi, deb xavotirdaman.

Ma’lumki, la’lning eng a’lo navi Badaxshonda hosil bo‘ladi. Shuning uchun shoh-shoir Badaxshon hamda la’l − vatani va nomi asosida tajnis san’ati yaratadi:

To chand nishini ba Badaxshon, La’liy,
On beh, ki zi sang la’l berun oyad.

Tarj.: La’lning tosh bag‘ridan chiqqani afzal, bas, La’liy sen qachongacha Badaxshondan chiqmay o‘tirasan?

Badaxshon − bir tog‘li o‘lka. Shu tog‘lar orasida qolib ketasanmi, deydi shoir o‘z-o‘ziga murojaat qilib. La’l tosh bag‘ridan chiqib, dunyoga mashhur bo‘lganiday, sen ham o‘zingni dunyoga tanitmaysanmi?

Badaxshoniylarga xayrixoh bo‘lgan N. ularning qirg‘in qilinishini adolatsizlik hisoblab, juda og‘ir qabul qilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёти ва санъати тожик. Жилд 2. – Душанбе, 1989.*

Q.E.

SHOH ALI BEN ABDULALI (XV asr) – “M.N.”ni fors tiliga tarjima qilgan. Ammo Sh.A.B.A. qilgan tarjima tugallanmagan. Faxriy Hirotiy va Muhammad Qazviniylarning ikki forsiy tarjimasi noshiri Ali Asg‘ar Hikmatning yozishicha, Sh.A.B.A.ning tarjimasi yettinchi majlisdagi Badiuzzamon Mirzo zikrida uzilib qolgan. Tarjimaning yagona nusxasi Ryo katalogida qayd qilinishicha, Britaniya muzeyida saqlanadi. Ryo tarjimon muqaddimasiga tayanib, Sulton Din Muhammad davrida amalga oshirilganini yozadi. Ryo fikriga ko‘ra, Din Muhammad Jonibekxonning o‘g‘li, Abdulloh II Shayboniyning jiyani bo‘lgan. Din Muhammad Abdulloh va Ab-

dulmo‘min davrida qisqa muddat Xurosonning bir qismi (aniqrog‘i, Nishopurda) hukmronlik qilgan. U 1598-y.da Hirotni bosib olgan va tez orada Shoh Abbos 2 Safaviy tomonidan quvilgan va halok bo‘lgan.

Prof. A.N.Boldirev Ali Asg‘ar nashriga yozgan taqrizida Din Muhammadning Hirotda hukmronlik qilgan davri g‘oyat qisqa va siyosiy voqealarga to‘la bo‘lgani uchun “M.N.” tarjimasi 1598-y.da emas, balki uning Nishopurdagi hokimligi davrida, ya’ni XVI asrning 80–90-yy.da bajarilgan bo‘lishi ehtimol, deb qayd qiladi. Ayni chog‘da A.N.Boldirev bu davr tarixida ikki Din Muhammad yashaganini yozadi: biri – Shayboniylardan Avanesh xonning o‘g‘li Marv hokimi Ubaydulloxon muxolifi (960–1552-yy.da vafot etgan) ikkinchisi – 974/1566–1567 –980/1572–74-yy. mobaynida Balxda hukmronlik qilgan Pir Muhammad Shayboniyning o‘g‘lidir. A.N.Boldirev “M.N.” ana shulardan biri davrida tarjima qilingan bo‘lishi kerak, degan taxminni ham o‘rtaga tashlaydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. Нашрга тайёрловчи сўзбоши ва изоҳлар муаллифи. Али Асғар Ҳикмат. – Теҳрон, 1945; Болдирев А.Н. Персидские переводы “Маджалис ан-нафаис” Навои. Ученые записки ЛТУ. История филологии стран Востока. № 128. Вып. 3. – Л., 1952.*

S.G‘.

SHOH NE’MATULLOH VALIY (taxallusi; to‘liq ismi: Sayyid Nuriddin ibn Mir Abdulloh Kirmoniy. 1329, Halab − 1431, Kirmon) − fors-tojik shoiri, tasavvufdagi ne’matullohiya tariqati asoschisi. Sayyid va Ne’matulloh taxalluslari ostida ijod qilgan, Sh.N.V. nomi b-n mashhur bo‘lgan. Bolaligida oilasi b-n Kirmon shahriga kelib, shu yerda ta’lim oladi. Balog‘at ilmi, kalom, fiqh, hikmatni o‘rganib, 24 yoshida haj ziyoratiga borib, 7 yil Makkada yashab qoladi. Keyin Balx, Marv, Samarqand, Shahrisabz, Hirot, Yazd, Tabriz, Misr, Madina, Karbalo, Sheroz va boshqa shaharlarga sayohat qilib, tasavvuf ta’limotini o‘rganish va targ‘ib qilish b-n shug‘ullanadi hamda xalq orasida katta shuhrat qozonadi. U tasavvufga oid arab va fors tillarida 100 dan ortiq risola yozgan. Undan g‘azal, qasida, tarje’band, masnaviy, qit’a, ruboiy, dubaytiy, fard kabi janrlardagi she’rlarni o‘z ichiga olgan salmoqli devon yetib kelgan. Valiy shoir ijodida ilohiy ishq tarannumi ustuvor bo‘lib, asarlari, asosan, tasavvuf haqiqatlaridan bahs etadi.

Ne’matullohiya tariqatida Haqqa yetishning 6 maqomi qabul qilingan: taslim (tavba), vara’ (parhez), muhabbat, faqr, rizo, fano. Unda xojagon tariqatidagi kabi xilvat dar anjuman, junaydiyadagi sahv − hushyorlik qoidalari ham ilgari surilgan, mehnat bilan halol rizq topish, zikrdan uzilmagan holda pok yashash silsila a’zolari u-n shart qilib qo‘yilgan. Ne’matullohiyaning markazlari Eron va Hindistonda bo‘lib, faoliyati ikki tarixiy davrga bo‘linadi: birinchisi − Sh.N.V. davridan XVIII asr boshlarigacha, ikkinchisi − XVIII asr oxiridan hozirgacha.

“Zohiri-yu botiniy ulumida komil va zuhd-u taqvo bilan orasta” (N.) Sh.N.V. hukmron doiralar b-n yaqin bo‘lib, jumladan, temuriylardan Shohrux Mirzo va Iskandar Sulton, Hindistondagi Dakan viloyati hokimi Ahmadshoh I Bahmaniy kabi hukmdorlar uni faol qo‘llab-quvvatlab turishgan. “U hatto Hirot viloyati amiri Imodiddin Hamza Husayn al-Hiraviyning qiziga uylangan ham edi. Shoh Ne’matulloh Valiy barcha tabaqalar, xususan, turkiy xalqlar orasida muqaddas qutb, karomatli avliyo sifatida nihoyatda ulug‘langan”.

N. ham “N.M.” tazkirasida yozadi: “Zamonning salotini, xususan, Hinduston mulkining maliklari anga murid-u muxlis ermishlar. Va tuhfa va nazri benihoyat ul mulkdin Kirmong‘a − Mir xizmatig‘a yuborurlar ermish. Mir nazmg‘a dag‘i mashg‘ul bo‘lur ermishlar. Va devonlari dag‘i bor”.

Ad.: *Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Энциклопедияи адабиёт ва санъати*

тожик. Жилд. 2. Душанбе, 1989; Абдуқодиров А. Тасаввуф истилоҳларининг қисқача изоҳли луғати (2-китоб). Хўжанд, 2002; Девони Шоҳ Неъматуллоҳ Валий. – Теҳрон, 2002; Шоҳ Неъматуллоҳ Валий. Рубоийлар // Донишмандлар туҳфаси. – T., 2009; Шоҳ Неъматуллоҳ Валий. Рубоийлар // Минг бир рубоий. – T., 2009.

E.O.

“SHOH ULUSI O‘ZIGA MUSHOBIH BO‘LUR ZIKRIDA” – Shohning xalqi shohiga o‘xshagan bo‘lishi haqida. “M.Q.” asaridan o‘rin olgan 10-fasl nomi. N. bu bo‘limda muayyan shoh ahli: mulozim, xizmatchi va tobe bo‘lgan har bir odamning ishi va xatti-harakatlari shoh ishiga o‘xshagan bo‘ladi, deydi. Saroy ahlining kayfiyati va fidoyilik qilishi, vazifani sidqidildan bajarishi boshqaruvchiga chambarchas bog‘liqligini amalda kuzatgan shoir podshohni adolatga chaqiradi: agar shoh adolatparvar bo‘lsa, ulus shiori ham hamisha adolat bo‘ladi, bordi-yu zulmkor bo‘lsa, el ham zulmga rag‘batli bo‘ladi. Davlat boshlig‘i islom shariatini mahkam tutsa, xalq ham din va islomni qattiq ushlaydi. Agar kufrga olib boruvchi xislatlar b-n o‘rtaga chiqsa, omma ham uning ortidan ergashib, kufrni fe’liga aylantiradi. Donishmandlar shohni pishqirib oquvchi daryoga, qavmini esa daryo tegrasidagi anhorga qiyoslagan. Daryoning kayfiyati va xosiyati qanday bo‘lsa, anhorlarda ham o‘shanday vaziyat bo‘lishi muqarrar: bu chuchuk bo‘lsa, ular ham chuchuk, bu qora bo‘lsa, ular ham qora, bu sokin bo‘lsa, anhorlarda ham sokinlik hukm suradi. Fasl so‘ngida keltirilgan masnaviyni faslda bayon qilinganlarni muxtasar she’riy ifodasi, deyish mumkin:

Arig‘larki, ul bahrdin ayrilur,
Biliklik alarning suyin ham bilur,
Chu birdur suv daryo bila nahr aro,
Emas ta’mida hojati mojaro.

Chunonchi, bu mulohazalar xalqimizdagi “Qovun qovundan rang oladi” maqolini yodga tushiradi. Zero, shoh va uning ahli o‘rtasidagi bog‘liqlikdan bahs etuvchi hikmatlar N.ning davlat arbobi sifatidagi tajribalarining natijasidan, uning har bir vaziyatni nechog‘li sinchkovlik b-n kuzatib borgani, har vaqt o‘z yurtining iqboli u-n qayg‘urganidan darak beradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – T., 2011.*

S.O‘.

SHOHID – N.ning “M.” asaridan olingan ushbu ism muammo yechish usulining 2-amali, ya’ni a’moli tahsilining tasmiya uslubiga ko‘ra nomdan harf olish yo‘li b-n chiqariladi. Tasmiya (nomlash) nazmda nomlanib yozilgan harf b-n ishorat qilish va uning ismini topish yoki ism b-n ishorat qilish va undan nomlanganni (harf nomini) istashdir. Asarda “Sh.” muammosining matni quyidagicha:

Shak nest, k-ahli olam dar soyayash daroyad,
Shohe, ki az adolat dilho hameraboyad.

Tarj.: Adolatdan dillarni olgan shohning soyasiga butun olam ahli kirsa ajab emas.

A’moli tahsili tasmiyaga muvofiq muammo halli topiladi: اش‌ه – shoh عدالت – “adolat”dan dillarni, ya’ni o‘rta harflarni olsa, دال bo‘ladi. Uning shakli د bo‘lib. اش‌ه “shoh”ga qo‘shilsa, اش‌هد – Sh. ismi hosil bo‘ladi.

N. ning “Sh.” ismiga bitgan muammosi ham uning bu sohada mahoratli muammonavis ekanidan dalolat berib turadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Девони Фоний. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – T., 2011; Зоҳидов Л. Алишер Навоий ижодида муаммо жанри // Масъул муҳаррир: Эркинов С. – T., 1986.*

S.R.

SHOHIY (Taxallusi; to‘liq ismi: Sulton Mas’ud Mirzo (1475–507) – zullisonayn shoir. Turkiyda Sh., forsiyda Orifiy taxalluslari b-n

ijod qilgan va har ikki tildagi she’rlari asosida alohida-alohida devonlar tuzgan. Abusaid mirzoning o‘g‘li Sulton Mahmud mirzo xonadonida dunyoga kelgan bu shahzoda besh bo‘g‘in orqali sohibqiron Amir Temurga borib bog‘lanadi. Sulton Mahmud mirzoning to‘ng‘ich o‘g‘li bo‘lib, onasi Mirbuzurg Termiziyning qizi Xonzodabegim edi. Amakisi Sulton Ahmad mirzoning Soliha Sultonbegim degan qiziga uylanadi. 1594-y. da u Hisor hokimi qilib tayinlanadi. Otasining vafotidan so‘ng, ukalari Boysung‘ur mirzo va Sultonali mirzolar b-n birga Samarqand taxti u-n kurashga kiradi, lekin muvaffaqiyatsizlikka uchrab, ortga chekinadi. Boysung‘ur Mirzo uni ta’qib etib, Hisorni ham qamal qilgach, Sulton Husayn Mirzodan panoh izlab Hirotga boradi. Bu yerda o‘zining izzat-ikrom b-n kutib olinganiga qaramay, yana toj-u taxt ilinjida o‘zboshimchalik b-n Movarounnahrga yo‘l olganida bek atkasi Xusravshoh uni qo‘lga tushiradi va ko‘rnamaklik qilib, o‘zining valiyne’matzodasi ko‘ziga mil tortadi. Shundan keyin yaqinlari uni yana Hirotga olib kelishadi. Husayn Boyqaro unga xayrixohlik ko‘rsatibgina qolmay, Begimsulton ismli qizini berib, o‘ziga kuyov qiladi. Bu nikohdan bir o‘g‘il-u bir qiz tug‘iladi. U 1507-y.da shayboniylarning Hirotga hujumi paytida o‘ldirilgan.

N. “M.N.” tazkirasining temuriy ijodkorlarga bag‘ishlangan yettinchi majlisi oxirida Sulton Mas’ud mirzo haqida ham ma’lumotlar beradi: “Sulton Mas’ud mirzo – ravshan zehnlik va mustahsan tab’liq va pokizaxisol va mahmudfiol yigitdur. Vafo va diljo‘yluq aning shiori, saxo va darveshxo‘yluq aning atvori. Mulk ravnaq va intizomida axtari mas’ud. Nazm zeb va ziynat itmomida abnoyi jinsqa maqsud. Bu turkcha matla’ aningdurkim:

Yor borib, jong‘a qo‘ydi dog‘i furqat, ey rafiq,
Ko‘ngluma kor etmasunmu dardi g‘urbat,
ey rafiq?”

“Boburnoma”da Bobur Sh.ning shoirligi va taxalluslari xususida ma’lumot bermagan bo‘lsada, “Risolayi aruz” asarida Sh. ijodidan ham namunalar keltir”gan. Jumladan, ikki g‘azali matla’si ramal bahrining “avvalgi vazni”ga yaxshi misol sifatida tilga olinadi.

Sh.ning turkiy devoni A.Abdug‘afurov tomonidan nashrga tayyorlanib, salmoqli so‘zboshi va izohlar b-n chop etilgan. Devon mutolaasi uning iste’dodli va mahoratli qalam sohibi ekanligidan dalolat beradi.

Baski, Shohiy, topti she’ring el aro barg-u navo,
Tong emaski, she’r ilan desang navoiyvormen, –

Maz.: “Ey Shohiy, she’rlaring el ichra shuhrat topganidan kelib chiqib, men ham Navoiy yo‘lida qalam tebrataman deb iftixor etsang yarashadi”, – deb yozgan shoir ijodida chindan ham g‘azal mulki sultonining samarali va ilhombaxsh ta’sirini ko‘ramiz.

U she’riyat yo‘lidagi rahnamosining ko‘plab g‘azallariga tatabbu’ qilgan, taxmislar bog‘lagan, uning yo‘lida qator baytlar bitgan, ba’zi bayt-u misralarini o‘z she’rlariga tazmin qilib olgan. Jumladan, “Bor edi ul hamki, bir chog‘ bizga yore bor edi”, “Vahki, umrum barcha zoye’ bo‘ldi el komi bila”, “Gul sochar el bog‘ aro – sarvi ravonim keldimu?”, “Qoshi yosinmu deyin, ko‘zi qarosinmu deyin?”, “Xastadur jonim mening, to bordi jononim mening”, “Kechti umrum naqdi g‘aflat birla nodonlig‘da hayf”, “Sel un chekti-yu, savdo menda bepoyon hanuz”, “Qaysi to‘biy jilvasi sarvi xiromoningcha bor?”, “Ohkim, ul oshno begona bo‘ldi oqibat”, “O‘tg‘a solg‘il sarvni, ul qaddi mavzun bo‘lmasa”, “Ne navo soz aylagay bulbul gulistondin judo”, “Ey ko‘ngul, gar kimsa ahvolim demas yor ollida”, “Ey manga sensiz bahor-u bog‘-u bo‘stondin malol”, “Kimki, oni yor dedim, bo‘ldi ag‘yor, ey ko‘ngul”, “Ey ko‘ngul, oy yuzidin mahrumsen, qon yig‘lag‘il”, “Jonga yettim sendin ayr-u hajr aro, ey yor, kel”, “Sayli ashkimdur yana hajrida tug‘yon qilgudek”, “Jonimizga, ey falak, tuzmak jafomu qilmading” kabi misralar b-n boshlanuvchi g‘azallariga tatabbu’ qilgan.

N.ning ramali musammani mahzuf (foilotun foilotun foilotun foilun) vaznida bitilgan 7 baytli "Edi" radifli mashhur g‘azali mavjud. G‘azalda shoir bir mahallar o‘zining ham yori bo‘lgani, lekin taqdir tuhfa etgan bu baxtga shukr etmaganining jazosi sifatida uni falak tortib olgani xususida so‘z boradi. Sh. ayni vazn va hajmda, lekin "bor edi" so‘z birikmasini radifga chiqarib, bir g‘azal yaratadi. Bunda ham vaqtida qadriga yetmagan yorini boy berganidan nadomat tuyg‘usi o‘z aksini topgan. Demak, har 2 g‘azalda mavzu mushtarak, vazn bir, hajm teng, radif esa o‘xshash. N. o‘z g‘azali maqta’sida "Bir mahallar mening ham yorim bor edi, agarchi to‘la ma’noda yorim bor edi deyolmasam ham, har holda yorim bor edi", – deb kinoya qilsa:

Bor edi ul hamki, bir chog‘ bizga yore bor edi,
Kulliy ar yor o‘lmasa filjumla bore yor edi, –

Sh. "Yorim yonimda bo‘lgan, oldida hurmat-e’tiborim bo‘lgan u kunlar qo‘ldan ketdi", – deb nadomat chekadi:

Bordi ul ayyomkim, ollimda yore bor edi,
Yor ollida manga ham e’tibore bor edi.

N.ning "Keldimu" radifli g‘azaliga tatabbu’si ham o‘ziga xos yangi bir g‘azalning dunyoga kelishiga turtki bo‘lgan. Ayni paytda ayni g‘azal va tatabbu’ aro ham muayyan mushtarakliklar ko‘zga tashlanadi. Jumladan, har 2 g‘azalning 5-baytlarini qiyoslab ko‘raylik:

N.:

Hajridin o‘ldum demangkim,
boshima kelmish Masih,
Ayting, ul osoyishi ruhi ravonim keldimu?

Sh.:

O‘lmish erdim hajr dardidin, dengiz, ey do‘stlar,
Jismi g‘amfarsud aro ruhi ravonim keldimu?

N: "Endi bu oshiqi bechora ma’shuqa hajrida o‘ldi degan xayolga bormangki, mening boshimga aslida jon ato etuvchi Masih tashrif buyuribdi, yaxshisi, xabar beringki, jonimning osoyishi keldimi?", – deb lutf etsa, Sh.: "Ey do‘stlar, faqir hijron dardidan o‘lgan edim, aytingki, g‘am adoyi tamom qilgan jismim aro jonim keldimi?", – deb mubolag‘a qiladi.

Sh. ba’zi tatabbu’larida N.ning baytlarini tazmin o‘laroq ham keltiradi. M-n., ustozining "Vahki, umrum barcha zoye’ bo‘ldi el komi bila" misrasi b-n boshlanadigan badiiy barkamol g‘azaliga qilgan "Mehnat ichra bo‘lsa har kim ko‘ngli oromi bila" misrali tatabbu’sida g‘azalning:

Zahrni o‘z komi birla ichsa andin yaxshikim,
Ichsa hayvon sharbatin nokomlig‘ jomi bila,

degan uchinchi baytini:

Zahrni o‘z komi birla ichsa, ondin yaxshiroq,
Ichsa hayvon sharbatin nokomlig‘ jomi bila,

tarzida juz’iy tafovutlar b-n o‘z tatabbu’siga 2-bayt o‘laroq singdirib yuboradi.

Sh.ning nashr etilgan devonidan o‘rin olmagan, lekin "India Offis" kutubxonasidagi devoni qo‘lyozmalarida mavjud "muxammaslarning deyarli barchasi N. g‘azallariga taxmis tarzida yaratilgan. Bu dalil Sh.ning ulug‘ shoirni o‘ziga she’riyatda ustoz deb bilganligini, uning ijodini yuksak ibrat-namuna o‘rnida ko‘rib, o‘sha yuksaklikka, saviya-darajaga intilganini ko‘rsatadi (A.Abdug‘afurov).

Ma’lumki, adabiy ta’sir keng va serqirra hodisa bo‘lib, u nafaqat bevosita, balki bilvosita ham namoyon bo‘ladi. Bevosita ta’sirda shoir o‘zini ilhomlantirgan g‘azalda o‘z ifodasini topgan mavzuni o‘sha vazn, qofiya va radifda davom ettirsa, bilvosita ta’sirni aniqlash birmuncha keyin kechadi. Bunda shoirning umumijodi ta’sir manbayiga aylanadi. U o‘ziga kuchli ta’sir ko‘rsatgan shoir ruhida, ohangida, uslubda, yo‘lida she’r yaratadi.

M-n, N. qator baytlarida hijronning o‘limdan ham og‘irligini aytib, falakdan jonondan judo qilguncha jondan judo qilishini so‘raydi. Sh.ning quyidagi baytida ayni fikrning bevosita bo‘lmasa ham, bilvosita ta’sirini ko‘ramiz:

Hajr ollida o‘lum oson emishtur, angladim,
Ne esa mushkil, erur mushkilroq ondin dardi hajr.

Maz.: Hijron oldida o‘lim oson ekanligini anglab yetdim – judolik dardi bu dunyodagi eng og‘ir narsadan ham og‘ir ekan.

Ma’lum bo‘ladiki, Sh. N.ga izdoshlik qilgan, ijod yo‘lida uni o‘ziga mayoq deb bilgan, uning ta’sirida qalam tebratgan shoirlardan hisoblanadi. Shahzodaning ulug‘ so‘z san’atkori g‘azallariga qilgan ko‘plab tatabbu’lari, bog‘lagan taxmislari, uning tavri va tarzida bitgan qator baytlari shundan dalolat beradi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Султон Масъуд Мирзо Шоҳий. Девон. – Т., 2001; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 2002; Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси. – Т., 2014; Абдуғафуров А. Султон Масъуд Мирзо Шоҳий (Сўзбоши) // Султон Масъуд Мирзо Шоҳий. Девон. – Т., 2001; Очилов Э. Навоий ва Шоҳий // “Илм-фан муаммолари тадқиқотчилар талқинида” мавзуидаги халқаро илмий конференция материаллари тўплами. – Хўжанд-Қўқон, 2023.*

E.O.

SHOHIY AMIR (Mir Shohiy) (1485, Sabzavor – 1453, Astrobod) – temuriylar davrida yashagan fors shoiri. Uning ismini N. “M.N.” tazkirasida Mir Oqmalik deb ko‘rsatadi. Boshqa manbalarda Amir Og‘amalik deyiladi va to‘liq shakli Amir Og‘amalik boshqa Jamoliddin Amir Shohiyi Sabzavoriy tarzida keltiriladi. Temuriylar, xususan, Shohrux Sultonning o‘g‘li Boysung‘ur Mirzo shoirlarga, adabiyot ahliga homiylik qilgan. O‘sha davrda yashab ijod qilgan bir qator iste’dodli shoirlar uning iltifoti va g‘amxo‘rligidan bahramand bo‘lganlar va ulkan ijodkorlar sifatida tanilganlar, jumladan, Sh.A. g‘azal ustalaridan biri deb e’tirof etilgan. Sh.A. N. tazkirasining birinchi majlisiga kiritilgan. N. unda Sh.A. she’rlari haqida “Aning she’rini choshni va salosat va yakdastlik va latofatida ta’rif qilmoq hojat ermas. G‘azali agarchi ozdur, ammo barcha xaloyiq qoshida pisandida va mustahsandur”, deb yozadi. Tazkirada Sh.A.ning Astrobodda vafot etgani va uning na’shi Sabzavorga olib kelib dafn qilganliklari haqida ma’lumot berilgan. N. Sh-.A.ni ko‘rmagan bo‘lsa-da, u b-n xat yozishganini ham aytib o‘tadi. Shuningdek, u Sh.A.ning tugallanmay qolgan ikki g‘azalining matla’sini keltirgan va shoirning vasiyatiga binoan, Sabzavor shoirlaridan Xoja Avhad Mustavfiy ularni tugatib, devoniga kiritganini xabar qilgan. Bundan tashqari, N. shoirning vafotiga bitilgan marsiyadan bir bayt keltirgan. Buyuk mutafakkir shoir Sh.A. haqda “M.L.”da ham tilga oladi.

N. o‘sha davr adabiy jamoatchiligi o‘rtasida Anvariy va Salmon she’riyatini qiyoslash asosida bahslar bo‘lgani, bahslashuvchilar bir-birlariga so‘zlari o‘tmagach, uning oldiga kelganlari va N.ning bu xususda bildirgan fikrlari b-n taxminlari bartaraf bo‘lgani haqida yozadi va xuddi shunday holatlar Sh.A. va Mavlono Kotibiy g‘azallari borasida hamda Shayx Nizomiy va Xusrav Dehlaviy masnaviylari xususida ham ko‘p bora bo‘lganini qayd etadi.

Sh.A. nomi N.ning forsiy devonida ham tilga olinadi. N. Sh.A.ning uchta g‘azaliga tatabbu’ yozgan. Ulardan biri “Peshi jomi purmayi raxshanda mahro tob nest, Sog‘ari xurshedro gar tob hast, in ob nest” deb, ikkinchisi “Fasli bahor-u har kase bo sarvi gulruxsori xud, Man bodili chun g‘uncha xun dar furqati dildori xud” deb, uchinchisi “Har dam rasad ba dilchu zi olamg‘ame digar, g‘am nest chun zi maybuvadat olame digar” deb boshlanuvchi g‘azallardir. Har uch g‘azalning tepasiga “Tatabbu’yi Mavlono Shohiy” deb sarlavha qo‘yilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Амиршоҳийи Сабзаворий. Мунтахаби ашъор. – Душанбе, 1987; Шоҳий Сабзаворий. Рубоийлар // Минг бир рубоий. – Т., 2009; Мамедова М. Дебоча // Амиршоҳийи Сабзаворий. Мунтахаби ашъор. – Душанбе, 1987; Норқулов Н. Темурийлар даври маданияти тарихидан лавҳалар. – Хоразм, 1996.*

Q.E.

SHOHMUZAFFAR (1481–1505, Hirot) – naqqosh, musavvir. O‘z davrining mashhur naqqoshi va musavviri Ustod Mansurning o‘g‘li. Mirzo Haydarning ma’lumot berishicha, Ustod Mansur “musavvirlar ustozi bo‘lgan. Ustod Mansurning mo‘yqalami nafis va go‘zal bo‘lgan... Shohmuzaffar undan-da o‘zib ketdi. Uning qalami tasviri g‘oyatda nafis, toza, chiroyli va dadil ediki, ko‘z qamashardi. U yigirma to‘rt yoshida olamdan o‘tdi, umri davomida yettita yoki sakkizta to‘plamga rasm chizgan. Uning qoralama suratlari odamlar qo‘lida saqlangan. Shu soha ustodlari ularni behad qadrlashadi”. Chunki u naqqoshlik va musavvirlikda ustod darajasiga yetishgan. Tasvirining nozikligi b-n ajralib turgan. Boburning yozishicha, Sh.ning tasavvufga oid yaxshi bir asari ham bo‘lgan. N. “X.”sining bir nusxasi uning sehrli qalami b-n naqsh-u ziynat topgan. Bu uning eng sara ishlaridan hisoblanadi. Miniatyura san’atida u ustozi Behzodga izdoshlik qilgan.

Ad.: *Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 2002; Тарихи Рашидий. – Т., 2010; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 3. Душанбе, 2004.*

E.O.

SHOHRUX SULTON (1376, Samarqand – 1447, Ray) – temuriy hukmdor. Amir Temurning to‘rtinchi o‘g‘li. 1393–1405-yy.da Xuroson hokimi. 1405-y.dan mustaqil hukmdor. Tarixiy manbalarda “xoqoni said” deb tilga olinadi. Yoshlik paytlaridan boshlab, siyosiy-harbiy ishlarga aralashib, sohibqiron tomonidan olib borilgan urush va yurishlarda ishtirok etgan va tajriba orttirgan. Amir Temur vafotidan keyin Sh.S. 1405-y.dan 1420-y. ga qadar bo‘lgan vaqt ichida sohibqiron saltanatining katta qismini o‘z qo‘l ostida birlashtirgan va 1447-y.gacha hukmronlik qilgan. Davlatni boshqarishda Sh.S. adolat mezonlariga amal qilishga intilgan. Uning hukmroniligi davrida harbiy yurishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, ular, asosan, temuriylar davlatini birlashtirish va uning hududlarining daxlsizligini ta’minlash maqsadiga qaratilgan edi. Sh.S. obodonchilik ishlariga, fan va madaniyatni rivojlantirishga katta e’tibor bergan. Uning farmoniga binoan 1405-y.da Hirot shahrining devorlari, darvozalari qayta tiklangan. Sh.S.ning uzoq yillar hukmronligi davrida mamlakatda ko‘plab madrasalar, masjidlar va boshqa obidalar barpo etilgan. Sh.S. o‘sha vaqtda vayrona holatda bo‘lgan Marv shahrini obod qildirgan. U Murg‘ob daryosida to‘g‘on barpo etib, mazkur shaharga suv keltirgan. Shundan so‘ng, bu yerga ko‘plab odamlar ko‘chib kelgan va bu joy temuriylar davlatining obod shaharlaridan biriga aylangan. Poytaxt Hirot Sh.S. davrida mintaqaning eng yirik ilm-fan, madaniyat markazlaridan biri bo‘lib qolgan. Sh.S. davrida ko‘plab olimlar, me’morlar va hunarmandlar yetishib chiqqan. O‘zbek adabiyotining ulkan vakillari bo‘lgan Mavlono Lutfiy, Mavlono Atoiy, Mavlono Sakkokiy, Mavlono Gadoiy, kabilar ham mana shu davrda ijod qilganlar. Ular Sh.S.ning shaxsiga, hukmdor sifatidagi fazilatlariga yuksak baho berganlar. Lutfiy va Sakkokiyning Sh.S.ga bag‘ishlab yozgan qasidalari bunga yaqqol dalildir.

N. Sh.S. hukmdorligi davrida dunyoga kelgan. U Sh.S.ga va faoliyatiga hurmat bilan qaragan. N. turkiy tildagi adabiyotning rivojlanishida temuriylar davri alohida o‘rin tutishini ta’kidlar ekan, “M.L.” asarida shunday yozadi: “Ammo Sultoni Sohibqiron Temur Ko‘ragon zamonidin farzandi halafi Shohrux sultonning zamonining oxirigacha turk tili bila shuaro paydo bo‘ldilar.... Sakkokiy

va Haydar Xorazmiy va Atoiy va Muqimiy va Yaqiniy va Amiriy va Gadoiylardek". Shuningdek, N. "M.N." asarining yettinchi majlisida ham Sh.S.ni zikr etadi va uning garchi she'r yozmasa ham she'rni, adabiyotni tushunadigan, o'rni kelganda vaziyatga mos she'rlar o'qiy oladigan kishi bo'lganligini ta'kidlab, quyidagi naqlni keltiradi: Mashhur me'mor Qavomiddin tomonidan qurilgan bir imorat tarhi Sh.S.ga yoqmagan va shundan so'ng me'mor bir yil ishdan mahrum bo'lgan. Yangi yilda u bir taqvim bitib saroyga kelgan. Sh.S. uning bu ishiga tabassum qilib, quyidagi baytni o'qigan:

Tu kori zaminro nak-u soxti,
Ki, ba osmon niz pardoxti.

Tarj.: Sen yerdagi ishlarni yaxshi bajarib, endi osmonga chiqding (osmon ishlariga kirishding).

N.ning Sh.S. tomonidan boshlangan ishlarni davom ettirgani diqqatga sazovordir. Ma'lumki, Sh.S. Hirotda Xoja Abdulloh Ansoriy qabri boshida mozor va ziyoratgoh barpo etgan. (1425–1427). Keyinchalik bu ishni N. davom ettirgan. Taniqli tarixchi Xondamirning xabar berishiga qaraganda, N. umrining oxirigi yillarida ko'p vaqtini shu yerda o'tkazgan va ziyoratgohni obod qilish uchun ko'p kuch sarflagan. Sh.S. qurdirgan binolar yonida bir xonaqoh barpo etgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Абдураззоқ Самарқандий "Матлаъ ас-саъдайн ва Мажма ал-баҳрайн". 2-жилд. – Т., 2008.*

Q.E.

SHOHQULI G'IJJAKIY – (XV asrning II-yarmi – XVI asr boshlari) g'ijjakchi sozanda. N. ning tarbiyasida o'sgan. Asli Iroqi Ajamdan, N. xonadoniga kelguncha xor-zor, sarson-sargardon yurgan. N.ning unga nazari tushib, o'z tarbiyasiga olgach, bu mashaqqatlardan xalos bo'lgan. "M."dan ma'lum bo'lishicha, N. undagi qobiliyatni ko'rib, qo'llab-quvvatlagan va Sh.G'. bunga javoban tez orada g'ijjak, ud, qo'biz va boshqa sozlarni chalishda benazir bo'lib yetishadi. Xususan, g'ijjakni chalish tarzini takomillashtiradi. Barbatga o'xshab, unga ham bir tor qo'shadi. G'ijjak u-n ko'plab "Peshrav"lar ijod qiladi. Asarlaridan "Navo" maqomi yo'lidagi "Savt" hamda "Muxammas" zarbi tarzidagi "Turkzarb" va "Peshravi Husayniy" usullari mashhur bo'lgan. Ta'bi nazmi ham bo'lib, Shohquli taxallusi b-n go'zal g'azallar yozgan.

Ulug' shoirning sa'y-harakatlari, Sh.G'.dagi qobiliyat va salohiyatni yuzaga chiqarish u-n hamma imkoniyatlarni ishga solgani orqasida u mohir sozanda, g'ijjakchi bo'lib yetishgan va katta shuhrat qozongan. Lekin shuhrat yukini ko'tara olmagan, ya'ni hozirgi til bilan aytganda, "yulduzlik kasali"ga yo'liqqan, nafs ketidan quvib, har xil nomunosib ishlar, fisq-u fujurga berilgan, hammani, shu jumladan, uni tarbiya qilgan, o'z mehrini bergan N.ni ham ranjita boshlagan, ko'ngliga ozor bergan. Bir so'z b-n aytganda, Sh.G'. valiyne'matining tuzini oqlamaydi, o'z muvaffaqiyatlaridan boshi aylanib, kibr-u g'ururga beriladi, muxoliflarning gapiga kirib, yomon yo'llarga kiradi. Mashq qilmay qo'yadi. Ulug' shoirning bu shaxs u-n qilgan ishlari, uning tarbiyasiga qanchalik kirishgani haqida Xondamir shunday yozadi: "Hunarparvar amir o'zining maqbul odati talabiga ko'ra, uning tarbiyasiga shu qadar kirishdiki, undan ortig'ini tasavvur etib bo'lmaydi, balki bedag'dag'a va shubhasiz, aytish mumkinki, olamning yaratilishidan to shu vaqtgacha biror sohibi davlat sozandani bu qadar baland martabaga ko'targan emas". N. qilgan ana shunday ishlarni e'tiborga olsak, Sh.G'.ning qilmishlari shoir qalbiga qanchalik alam yetkazganini tasavvur etish qiyin emas.

Bularning bari "M."dagi bir maktubda o'z aksini topgan. N.ning asrandi farzandiga xati sifatida bir nechta olimlarning diqqatini tortgan maktub ana shu bo'lib, ular kimligini bilishga qiziqqan va aniqlashga uringan shaxs, ya'ni mak-

tub adresati Sh.G‘.dir. Maktubdagi so‘zlar Xondamirning Sh.G‘. tarbiyasiga N.ning qanchalik kuch-g‘ayrat sarflagani, hech kim hech bir davrda bunday ishlarni qilmagani haqidagi fikrlarni tasdiqlaydi. “Fisog‘urs hakim zamonidinkim, – deb yozadi N., – advor (musiqa) ilmining voziidur, Arastu zamonig‘achakim, muallimi avval debturlar va Abu Nasr Farobiy chog‘idinkim, muallimi soniy debturlar, Xoja Abdulqodir asrg‘acha ma’lum emaskim, bu fanda hech podshoh zamonida bu fan ahlidin hech kimga buncha tarbiyat va nash’u namo voqe’ bo‘lmish bo‘lg‘aykim, senga voqe’ bo‘ldi” N.ning undan ko‘ngli ranjib, maxsus maktubda bularning barchasini birma-bir aytib o‘tadi. Jumladan, uning kamoloti yo‘lidagi o‘zining xizmatlari haqida N. shunday yozadi: “Hayotimni sening tarbiyatingga mash’uf va avqotimni sening muhofazatingg‘a masruf qildim va farzandlig‘ing raqamini xotirimg‘a muharrar va otalig‘ mehr-u shafqatin holingg‘a muqarrar ettim... sening tarbiyatingg‘a kundin-kunga ustuvorroq va riyaotingqa lahzadin-lahza beqarorroq erdim”. Keyinchalik Sh.G‘. o‘z xatosini anglab, yana to‘g‘ri yo‘lga qaytgan va N. e’tiborini qozongan hamda Husayn Boyqaro saroyida baland martabaga erishgan bo‘lsa-da, shoir uning ismini “M.N.” tazkirasiga kiritmaydi va sababini yuqoridagi maktubda ko‘rsatgan. “Otingni to‘rt daftardin chiqarilibtur, – deb yozadi N., – bir – mulozimlar daftarida farzandliq laqabidin, balki oshnoliq ismidin; ikkinchi – “M.N.” “daftarida fazl va tab’ ahli chargasidin; uchunchi –... erlik, insoniyat va musulmonlig‘ va hamiyat daftaridin; to‘rtunchi – podshohi islom hazratidakim, muborak tiliga yomon duong o‘tubtur”.

Ad: *Алишер Навоий. Муншаот. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Эргашев Қ. Ўзбек насрида иншо. – Т., 2011; Эргашев Қ. Ноқобил фарзанд ким? // 1991; Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1985; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 3. – Душанбе, 2004.*

E.O.

SHOH G‘ARIB MIRZO (1470–1496, Hirot) – temuriy shahzodalardan, Husayn Boyqaroning ikkinchi o‘g‘li (onasi Xadicha begim). Shoir taxallusi “G‘aribiy”. “Yaxshi ta’bli, so‘zga chechan yigit bo‘lgan. Sulton Husaynning hukmi b-n bir qancha muddat Hirotni idora qilish Sh.G‘.M.ga topshirilgan.

Bobur yozishicha, Sh.G‘.M. bukri bo‘lgan, ammo ko‘rinishi ham xunuk bo‘lishiga qaramay, fe’l-atvori yaxshi, xulqi go‘zal, so‘zlari yoqimli, o‘zi iste’dodli bo‘lgan. Bobur ta’biri b-n aytganda: “Agarchi hay’ati yomon edi, tab’i xo‘b edi. Agarchi badani notavon edi, kalomi marg‘ub edi. “G‘aribiy” taxallus qilur edi. Devon ham tartib qilib edi, turkiy va forsiy she’r aytur edi. Bu bayt aningdurkim:

Dar guzar didam pariro‘ye shudam devonaash,
Chist nomi o‘, kujo boshad nadonam xonaash.

Tarj.: Ko‘chada bir pari yuzlini ko‘rib, devonasiga aylandim, na uning nomini bilaman-u na qayerda turishini.

Undan o‘g‘il-qiz qolmagan, otasi hayot ekanida vafot etgan.

N. “F.Sh.” oxirida Sh.G‘.M.ga alohida bob ajratadi. Uni yaxshi fazilatlarga ega, ilm-ma’rifatga tashna bo‘lgan yosh shahzoda sifatida ta’riflaydi va unga ba’zi nasihatlarni beradi. Mamlakat va xalq taqdiriga aloqador shaxslarning, ayniqsa, ilm-fan o‘rganishlarini N. g‘oyat muhim deb bilgan. Sh.G‘.M.ning ham ilm o‘rganishga jahd qilishi, kasbni egallashda kamolotga intilishi lozimligini ta’kidlab, bu xususda misol tariqasida Iskandar va Ulug‘bek mirzolarni keltiradi. N. diniy ilmlarni (fiqh, hadis va tafsirni) hikmatni o‘rganishni nasihat qiladi. Ayniqsa, tarixni o‘rganishning ahamiyatini alohida qayd qiladi. Bunda qaysi hukmdor zulmkorlik qildi, qay biri adolat b-n ish tutdi, qaysi tadbirlardan mamlakat obod bo‘ldi, qanday ishlar ulusni barbod qildi va h.k. larga fikr berishni uqdiradi.

N. shahzodaning tabiatidagi nozik ma’no, so‘z yorqinligiga moyillikni maqtaydi. Ana shu jihat

Sh.G‘.M.ning shoirlik iqtidoriga aloqador bo‘lib, 90-yy.da u ko‘zga ko‘ringan zullisonayn shoir sifatida tanilgan. N. “M.N.”da Sh.G‘.M.ning she’riyatidagi iste’dodiga, uning yuqorida keltirilgan nozik ma’nolar topib, o‘tkir fikr yuritishi qobiliyatini madh etadi. N. yozishicha, Sh.G‘.M.ning hofizasi g‘oyat mustahkam, zehni o‘tkir bo‘lgan. U Qur’on qiroati va she’r o‘qishda mohir bo‘lgan, ov qilish va qush solishni yaxshi ko‘rgan. U ham nazmda, ham nasrda qalam tebratgan.

“M.N.”da Sh.G‘.M.ning uchta turkiy va ikkita forsiy matla’sini keltiriladi.

Agar tazkirada shoirlar ijodidan bir-ikki xarakterli matla’ va baytlarni keltirilganini inobatga olinsa, N. o‘z davrida Sh.G‘.M. she’riyatiga alohida e’tibor b-n qaragani ma’lum bo‘ladi.

Forsiydagi she’ri:

Do‘ston, har gah guzar so‘yi mazori man kuned,
Joyi takbiram duoyi joni yori man kuned.

Tarj.: Do‘stlar, goho mozorim tomon kelib turing. Menga fotiha o‘qish o‘rniga yorim jonini duo qiling.

N. ham Bobur ham Sh.G‘.M.ning devon tartib qilganini ta’kidlaydilar.

“M.N.” tarjimoni Faxriy Hirotiy o‘zidan ilova qilgan to‘qqizinchi majlisda keltirishicha, hirotlik bir shoir “G‘aribiy” taxallusini olganda, Husayn Boyqaro o‘g‘lining xotirasi u-n uning taxallusini “Majlisiy”ga o‘zgartirgan ekan.

N. “M.”da Sh.G‘.M.ga yozilgan maktub bor. Ushbu ruboiy b-n boshlanadi:

Ermas andin nola bila oh g‘arib,
G‘urbat istar gar ulus ogoh g‘arib,
Tushsa kishi bir mulk aro nogoh g‘arib,
Kim so‘rg‘ay ani shohi jahon – Shoh G‘arib.

Maktub N. va Sh.G‘.M. o‘rtasida samimiy munosabatlar bo‘lganidan darak beradi.

N. “Soqiynoma”sida ham Sh.G‘.M.ga bag‘ishlangan qism mavjud.

N. Sh.G‘.M. o‘limiga marsiya ham yozgan. Har bandi 6 baytdan iborat 5 bandli (60 misra) tarkibband marsiyada sohibi devon shoir, kamtar va shirin so‘z shu shahzodaning o‘limi barcha she’riyat ahli uchun, uning adolatidan, marhamatidan bahramand bo‘lgan shahar ahli (bu o‘rinda Boburning “necha mahal Hiri hukumatin Sulton Husayn Mirzo Shoh G‘arib mirzog‘a berib edi”, – deb yozganini nazarda tutish joyizdir) u-n, ayniqsa, N. u-n katta yo‘qotish ekanligi qalamga olinadi.

“Ravzat us-salotin”ning noshiri Hisomuddin Rashidiy ta’liqot qismida Sh.G‘.M. tavalludi 864/1459–60, vafoti 902/1497–97 deb yozadi va “otasi o‘z mozoriga tayyorlagan “sangi haft rang qalami” (yetti bezakli xat) qabr toshini o‘g‘li qabriga yoptirgan” deb yozadi.

Sh.G‘.M. devoni Germaniyaning Gamburg milliy kitobxonasida saqlanadi. 2007-y. Shafiqa Yorqin so‘zboshi bilan nashr qildi. 15-ashyo raqami b-n saqlanayotgan qo‘lyozma to‘plamdan Sh.G‘.M.ning forsiy va turkiy she’rlari ham o‘rin olgan. Unga ko‘ra, uning hozirgacha bizga yetib kelgan forsiy merosi 37 g‘azal, 1 qit’a va 1 muxammas, turkiy merosi esa 76 g‘azal va 4 muxammasdan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 1767 misrani tashkil etadi. Turkiy muxammaslarining 3 tasi N., bittasi Husayn Boyqaro g‘azallariga bog‘langan.

Ad.: *Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. ТАТ. 10 жилдлик, 4-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Муншаот. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 1960; Адабий мерос-2. 1971; Фахрий Ҳиравий. Равзат ус-салотин. – Т., 2014; Шоҳғариб Мирзо Ғарибий. Девон. – Т., 2001; Фахрий Ҳиравий. Равзат ус-салотин. – Т., 2014; Ёрқин Ш. Ғарибийнинг ҳаёти ва янги топилган қўлёзма девони ҳақида // “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2001, № 1; Асадов М. Соқийнома: тарих ва поэтика. – Т., 2020.*

S.G‘., E.O.

SHUAYB (a.s.) mashhur payg‘ambarlardan biri. Xushsuxanligi va benazir voizligi sabab “Xatibulloh” laqabi b-n ham eslanadi. Qur’oni Karimda Sh. (a.s.) ismi 9 marta zikr etilgan.

N. “T.A.H.” asarida “xatib ul-anbiyo” bo‘lgani**,** Sh. (a.s.)ning Ibrohim yoki Solih (a.s.) avlodidan ekanida ixtilof borligi, onasi Miko Lut (a.s.)ning qizi bo‘lgani haqida yozadi. Haq taolo uni Madyan va Ayka o‘lkasiga payg‘ambar qilib yuborgan. Bu joy Shom o‘lkasi yaqinida joylashgan. Ular tarozu va oldi-sotdi ishlarida qalloblik qilar, tanga va pullarni o‘zlaricha yasar edi. Shuning u-n ular Sh. (a.s.)dan mo‘jiza sifatida toshlarni misga aylantirib berishni so‘rashgan. Kasblari qaroqchilik va o‘g‘rilikdan iborat edi. Butparastlik qilishardi. Madyan ahli unga bo‘ysunmagach, Alloh taolo ularga olov va issiqlik balosini yuboradi. Yetti kun havoning harorati juda issiq bo‘lib ketganidan, qavm aholisi chiday olmasdan o‘rmon va daraxtlari ko‘p bo‘lgan joyga yuzlanadilar. Biroq oxirida do‘zaxiy bir olov tushib, barchasini kuydiradi. Tarixchilar qavmga kelgan mazkur issiq havoni Samum yeli deyishadi. Sh. (a.s.) va unga ergashgan solih zotlargina bu balodan omon qoladilar.

N. yozishicha, “Shuayb (a.s.)ning umri iki yuz yigirmaga yetkonda” vafot etgan va Makkada Rukn va Maqom arosida dafn etilgan. Ba’zilar “As’hobi Ras” (quduq ahli) Sh. (a.s.) zamonida bo‘lgan deyishadi. Sh. (a.s.)ni suryoniy tili bila Shirub deydilar. Mo‘jizalaridin biri shuki, kuffor toshni mis qilmoq tiladilar, uning duosi bila borcha toshlar mis bo‘ldi. E’tiqod qilmadilar, yana avvalgi holiga qaytdi. She’r:

Shu’ayb ayladi chun jahondin xirom,
Zuhur etti Muso alayhissalom.

Muso (a.s.)ga payg‘ambarlik yetishidan avval Sh. (a.s.) xonadonida bir necha yil cho‘ponlik qiladi, u zotning Safuro degan qiziga uylanadi.

Sh. (a.s.) N. she’riyatida ko‘pincha rahnamo – pir sifatida qo‘llanilgan.

Pirsiz kezma bu vodiy ichrakim, topmas Kalim,
Tiyra shomin ravshan amr etmay anga xidmat
Shuayb.

Ad.: *Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. ТАТ. 10 жилдлик, 8-жилд. – Т., 2011; Носируддин Бурҳониддин Рабғузий. Қиссаси Рабғузий. – Т., 2009; Пайғамбарлар тарихи (Исломият тарихи). – Т., 2014.*

S.R.

SHCHERBAK Aleksandr Mixaylovich (1926–2008) – f.f. d-ri, prof. N. asarlari asosida “Грамматика староузбекского языка” (“Eski o‘zbek tili grammatikasi”) risolasini nashr etdi. Olim ushbu asarida mumtoz o‘zbek tili fonetikasi, morfologiyasi va sintaksisining birinchi marotaba Yevropa tilshunosligi yutuqlari asosida izohlab, tilshunoslik faniga katta hissa qo‘shdi. Shoir asarlaridagi so‘z turkumlari va qo‘shimchalarning grammatik vazifalarini ilmiy jihatdan sharhlab, N. tilini ilmiy jihatdan o‘rganishga asos soldi. Monografiya oxiridagi uch ilovada mumtoz o‘zbek tilida she’r tuzilishi, (247–256-betlar), grammatik terminlar lug‘ati (256–263-betlar), affikslar-qo‘shimchalar ko‘rsatkichi (267–271-betlar) berilgan.

Ad.: *Шчербак А.М. Грамматика староузбекского языка. – М–Л., 1962.*

E.U.

CH

CHAVGON (f.) – “ot to‘pi” o‘yinida to‘p (go‘y)ni uradigan uchi qayrilgan, egri tayoq. Asli chavlajon bo‘lib, arab tiliga savlajon bo‘lib o‘tgan. Lug‘atda savlajon egri va egik aso ma’nosida keladi. Ch.ning ham uchi egri. Shuning u-n savlajon deganlar. Chavandozlar Ch. o‘yini deb atalgan o‘yinda ot ustida turib, bu tayoq b-n to‘p surganlar. “Ot to‘pi” o‘yinining o‘zi ham Ch. deyiladi. N. bu so‘zdan timsol o‘laroq turli badiiy maqsadlarda keng foydalanadi. M-n:

Mendin ul chobukning, ey payki sabo, maydonin o‘p,
Kuyiga boshim niyozin yetkurib, chavgonin o‘p.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик, 3-жилд. – Т., 1984; Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. – Душанбе, 1987; Жилд 2. – Душанбе, 1988; Фарҳанги забони тожики. Жилд 2. – М., 1969.*

E.O.

CHAKOVAK (f.) – 1. Chumchuqdan kattaroq, hudhud (popishak)ga o‘xshagan boshida toji bor xushovoz qush; so‘fito‘rg‘ay. 2. Majoziy go‘zal va yoqimli ovoz va kuy. N. asarlarida turli maqsadlarda keng istifoda etilgan timsollardan. M-n:

Nechukkim anglamish erdi yako-yak,
Borin sayrodi andog‘ki chakovak...

Kushod o‘lg‘ay anga ul barcha novak,
Chiqorg‘ay rar oningdekkim chakovak.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик, 3-жилд. – Т., 1984; Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. – Душанбе, 1987.*

M.A.

CHALABIY (XVI asr) – rumlik kotib, olim, muarrix, turk tarjimoni va xattoti. Tabriz xattotlik maktabining namoyandasi. Ch. XVI asrning birinchi yarmida yashagan. U N. asarlaridan kitobat qilgan bir qo‘lyozma to‘plam Sankt-Peterburg Davlat xalq kutubxonasining Sharq bo‘limida TNS 56 raqami ostida saqlanadi. Qo‘lyozma tarkibiga “A.”, “B.B.” debochasi, “Terma devon” va “V.” kirgan. Hajmi 225 varaq. Kotib Ch. deb imzo chekkan va 1527-y.da (934-y.) Tabriz shahrida ko‘chirib tugatganini qayd etgan. “Terma devon” tarkibida 6 ta rasm bor. Ch. ko‘chirgan bu qo‘lyozma Tabriz kitobat san’atining eng yuksak namunalaridan biri hisoblanadi.

Ad.: *Муҳаммад Шариф Садри Зиё. Тазкират ал-хаттотин. ШҚМ-1, № 1304/III; Хондамир.Равзат ус-сафо. 7-дафтар; Муродов А. Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан. – Т., 1971.*

Muh.A.

CHARKAS I – Tarixiy-geografik toponim, atoqli ot. N. “N.M.” tazkirasida Shayx Bobo Tilanchiga bag‘ishlab yozgan “Bobo Tilanchi (q.r.)” nomli fiqrada Ch.ni Shayx istiqomat qilgan manzil ma’nosida tilga olgan: “Marv yo‘lida Charkas ban-

dida sokin erdi. Majzub erdi. Ilayida qish va yoz o‘t yoqarlar erdi. Bir siqa kishi bu toyifadinki, so‘zida shoyibayi kizb yo‘q erdi, dediknm, Xorazm tarafidan kelurda aning takyasig‘a yettim va aning bila muloqot qildim.”

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

B.R.

CHARKAS II – Kamon o‘qining uchi, tig‘ning dami, turdosh ot. N. “H.A.” dostonida Ch.ni ana shu ma’noda qo‘llagan. M-n:

Shu’layi tig‘in demagil charkasi,
Chekti zabona hamul o‘t shu’lasi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

B.R.

CHAG‘ONA (f.) qadimiy musiqa asboblaridan biri. Ch. 30–40 sm.dagi yog‘ochdan yasalib, uning bir uchini teshadilar va unga bir necha qo‘ng‘iroqni osadilar. Ch. chalish jarayonida harakatga tushib, zarb va usul vujudga kelgan. Ch. O‘zbekiston, Tojikiston va Koshg‘arda Safoyil nomi b-n ham mashhur. Shuningdek, musiqadagi kuylardan birining nomi ham Ch. deyiladi. N. “M.Q.” asarida Ch. musiqa asbobini ham tilga olib o‘tgan. M-n: “Mayxonada kimki maydin ibo qilg‘ay, nay uni bir dilkash navo bila ani rasvo qilg‘ay. Agar kishi may xavosin boshidin chiqorur, g‘ijjak maddi nay nolasi bila yolborur. Va tanbur pardadag‘i fitnadin halok etar va ofiyat pardasin chok etar va chang zorlig‘ bila bo‘g‘zin tortar va ud lisoni nag‘masining targ‘ibi changidin ham ortar. Andakim rubob boshin yerga qo‘yub niyoz ko‘rguzgay va qo‘buz quloq tutub ayshg‘a targ‘ib ohangni tuzg‘ay. Chun qonun va **chag‘ona** nolasi quloqqa tushgay va mahvash soqiy yukunub, may ayoqig‘a tushgay, ul vaqt zuhd-u taqvog‘a ne e’tibor va hush-u xiradg‘a ne ixtiyor. Agarchi ishq faqr ahlini rasvo qilurda bulardin farog‘dur va lekin ul o‘tni yoruturg‘a nay damidin el-u maydin yog‘dur. Arab tevasi “hudiy” lahni bila bodiya qat’ida tez bo‘lur, bulut buxtisi ra’d sadosidin soiqaangiz. Insong‘a mahzi g‘alat xayoldur va odamiyg‘a bu ofatdin qurtulmoqliq maholdur”.

Ad.: *Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. – Душанбе, 1987; Фарҳанги забони тожики. Жилд 2. – М., 1969; Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Жилд 3. – Душанбе, 2004.*

E.O.

CHAHORJO‘YI OXUND IBN MIRHASAN Xorazm xattotlik maktabining vakili. “X.M.”dan ikki nusxa ko‘chirgan: Bu qo‘lyozmalar O‘zR FAShIda inv. №9289 (388 varaq) va inv. №154 (H.Sulaymonov fondi)da saqlanmoqda. 1260/1844-y.i yirik nasta’liq xatida ko‘chirilgan.

Ad.: *Ҳакимов М., Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. – Т., 1991; Собрание восточных рукописей академии наук Узбекистан. VII. – Т., 1964.*

Muh.A.

CHAHORJO‘YI MULLO O‘ROZ MUFTI IBN RO‘ZI MUHAMMAD ELBEGI Mullo O‘roz XIX asr Buxoro xattotlik maktabi vakili. Nasx va nasta’liq xatida mohir xattot. N.ning “X.”sini nasta’liq xatida, Qo‘qon qog‘ozi, Chorjo‘yda Muhammadyor Dodhoh ibn Muhammad Solih Dodhohning iltimosiga ko‘ra 1227/812-y.da ko‘chirgan. O‘zR FAShI.da inv. №8831 (271 v.) raqam bilan saqlanadi.

Ad.: *Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. – Т., 1991.*

Собрание восточных рукописей академии наук Узбекистан. VII. – T., 1964.

Muh.A.

“ÇAĞATAY TÜRKÇESI ÜZERINE BIR BIBLIYOGRAFYA DENEMESI” mazkur bibliografik tavsif turk olimi Murat Elmali tomonidan tuzilgan bo‘lib, unda Turkiya nashrlarida chig‘atoy adiblari haqida 1937–2006-yy. oralig‘ida e’lon qilingan 254 ta maqolaning ro‘yxati va mazmuni xronologik tartibda berilgan. Mazkur ma’lumotlar “Türk Dili ve Edebiyatı Dergisi” jurnalida (17-106) e’lon qilingan bo‘lsa-da, 90 sahifa hajmni tashkil etadi. Ro‘yxatda: Sakkokiy, Husayn Boyqaro, Komron Mirzo, Bobur, Abulg‘ozi Bahodirxon va boshqa turkiy adiblar ijodi haqidagi maqolalar tavsifi ham berilgan. Biroq asosiy maqolalar N. hayoti va ijodi, asarlariga tuzilgan lug‘atlar haqida. Har bir e’lon qilingan tadqiqotning muallifi, sarlavhasi, nashr joyi, pastida esa mazmuni berib borilgan. Jumladan, Kamol Eraslon, Fuod Ko‘prulu, Ahmet Kaferoglu, Yanosh Ekman, Ismoil Hikmat Ertaylon, Basim Atalay, Enver Ayjan, Agah Sirri Levend, Ali Nihat Tarlan, Go‘nul Alpay, Abik Deniz kabi ko‘plab turk, shuningdek, bir qancha o‘zbek olimlarining turk tilidagi maqolalari ko‘rsatilib, izohlangan. Mazkur ma’lumotlar Turkiyadagi n.shunoslikni o‘rganishda qimmatli manba vazifasini o‘taydi.

Ad.: *Murat Elmali. Çağatay Türkçesi Üzerine Bir Bibliyografya Denemesi. İstanbul Üniversitesi Türk Dili ve Edebiyatı Dergisi, cilt. XXXV, 2007.*

N.H.

CHETINDOG‘ YUSUF – turk olimi, n.shunos. N. va usmonli shoirlari o‘rtasidagi adabiy aloqa hamda izdoshlik mavzusini qunt b-n yoritishga bel bog‘lab, e’tibor va e’tirofga loyiq ishni amalga oshirgan navqiron olimlardan biri Ch.Y. dir. U 1969-y. Turkiyaning Kilis shahrida tavallud topgan. O‘rta maktabni bitirgach, Bo‘g‘ozichi universitetining Turk tili va adabiyoti bo‘limida tahsil olgan. Oliy o‘quv yurtini tugatib, Fotih universitetida ish boshlagach, N.ning Onado‘li adabiyotiga ta’sirini maxsus o‘rganishga kirishgan va “Alisher Navoiyning g‘arbiy turkiy tilli devon adabiyotiga ta’siri” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan.

Uning butun olimlik e’tibori va mehri N. shaxsiyati, ijodiyoti, XV–XVI asr usmonli shoirlariga o‘tkazgan ta’siri va samaralarini tarixiy, ilmiy, adabiy manbalar asosida yoritishga qaratilgan. Shu ma’noda olimning “Alisher Navoiyning usmonli she’riyatiga ta’siri” (Anqara 2006) nomli kitobi alohida ahamiyatga molikdir. Bundan tashqari uning “Alisher Navoiy hayoti va asarlari” (Istanbul 2004), “Alisher Navoiy” (Istanbul 2011) kabi yirik asarlari, N. va Hirot adabiy maktabi mavzusida o‘nlab maqolalari ham bor.

Ch.Y.ning tashabbusi va g‘ayrati bilan 2012-y.ning fevralida Istanbulda xalqaro N. simpoziumi tashkil etildi. Bu yig‘inga ko‘p sonli turkiyalik olimlar bilan birga Ozarbayjon, Eron, Pokiston, Afg‘oniston, Xitoy, Tojikiston, Qirg‘iziston, Germaniya, Rossiya kabi davlatlardan kelgan adabiyotshunoslar, yurtimizdan tashrif buyurgan yigirmaga yaqin olim va ijodkorlar, O‘zbekistonning Turkiyadagi elchixonasi va bosh konsulxonasi xodimlari qatnashishdi.

M.F.Kuprulizoda, A.N.Tarlan, O.S.Levend, K.Eraslon kabilar o‘tgan asrda n.shunoslikka munosib hissa qo‘shishgan. Bu zahmatkash olimlarning tadqiqotlaridan so‘ng Turkiyada n. shunoslik to‘xtab yoki uzilib qolmadi. Hozirgi paytda Ch.Y. bu xayrli ishni davom ettirmoqda. N.ga yuksak ehtiromining bir e’tirofi sifatida uning “Alisher Navoiy va usmonli she’riyati” kitobi va “Alisher Navoiy” risolasi o‘zbek tilida nashr etildi.

Ad.: *Четиндоғ Ю. Алишер Навоийнинг усмонли шеъриятига таъсири. – Анқара, 2006; Четиндоғ Ю. Алишер Навоий ҳаёти ва асарлари. – Истанбул 2004; Четиндоғ Ю. Алишер Навоий. – Истанбул, 2011.*

N.H.

CHIN (XITO(Y) – mumtoz adabiyotlarda qo‘llanilgan Xito(y) yurtining nomi. Manbalarda qadimiy yigirmata turkiy qabiladan biri – xitoylar istiqomat qilgan joy. Biroq mazkur atama hozirgi davlat va xalq nomidan kelib chiqmagan. Mahmud Koshg‘ariy Ch. mamlakati uchga Yuqori Ch. (Sharqda bo‘lib, Tavg‘ach deyilgan), O‘rta Chin (Xitoy), Quyi Chin (Barxan deyiladi va u Qashg‘arda)ga bo‘linganini yozgan. Ch. turkiy tilda “pok”, “haqiqiy”, “to‘g‘ri”, “rost”, “to‘liq” kabi ma’nolarni anglatgan. Ch. qadim manbalarda ko‘p uchragani sabab, Turkistonning bir bo‘lagiga nisbatan qo‘llanilgan atama bo‘lgan yoxud Xitoy tarixidagi Ch. (Sin) sulolasi (mil. av. 246–270) nomiga aloqador, – degan taxminiy qarashlar mavjud. Ch. avvaldan nozik va go‘zal xalq amaliy san’ati va miniatyuralar vatani bo‘lishi b-n birga qadimdan o‘zining sifatli qog‘ozi, tengsiz va rang-barang matolari, xushbo‘y mushklari, hunarmandchilikdagi turli buyumlari hamda naqqoshlikdagi yutuqlari b-n dong taratgan. Ch. N.ning “F.Sh.” dostonida bosh qahramonning, ya’ni Farhodning vatani sifatida tasvirlangan. Dostonda Farhodnin otasi Xoqon deb ataladi. Ma’lumki, “xoqon” turkiy hukmdorlariga nisbatan ishlatiladi. N.da Ch. turklar yurtini, Xoqoni Ch. turkiy hukmdorlarni anglatishini ko‘rsatuvchi qaydlar “T.M.A.” asarida mavjud. Jumladan, Hurmuz binni Anushervon zamonida Eronga turli tomondan hujumlar bo‘lgani haqida u shunday yozadi: “Atrofdin dushmanlar mulki tama’sig‘a yuz qo‘ydilar: Rumdin qaysar va Arabdin Abbos ul-ahval... va Turkistondin Xoqoni Chin”. N. tasviridagi Ch. juda go‘zal va bepoyon mamlakat, uning hukmdori esa barcha podshohlardan ulug‘ va ustun:

Ki Chin mulkiki, rashki naqshi Chindur,
Savodi g‘ayrati xuldi barindur.

Ikki olamcha mulki vus’at ichra,
Yetti garduncha taxti rif’at ichra.

Shuningdek, N. dostonda Ch. mamlakatining go‘zallari, u yerdagi mohir hunarmandlar va san’atkorlarni ham ta’riflaydi hamda o‘quvchi ko‘z o‘ngida obod, madaniyati rivoj topgan bir o‘lkani gavdalantiradi. Bir o‘rinda muallif Farhodning yurtiga nisbatan “Xo‘tan mulki” iborasini ishlatadiki, bu ham yuqoridagi fikrimizni, ya’ni dostondagi Ch. mulki turkiylar yurti ekanligini, Farhod, Xoqon, Bahrom, Mulkoro singari qahramonlarning o‘z turkiy xalqimizning vakillari ekanligini tasdiqlaydi.

Ch. mohir naqqosh va musavvirlar, hunarmandlar yurti hisoblangan va shu bilan bog‘liq ravishda o‘rta asr adabiyotida “Chin naqshi”, “naqqoshi Chin”, “surati Chin” singari ibora va tashbehlar paydo bo‘lgan. Shuningdek, Ch. go‘zallari, ohusi, mushki ham mashhur edi va shu tufayli “lu’bati Chin”, “buti Chin”, “ohuyi Chin” “mushki Chin”, “Chin g‘azoli” kabi ibora va tashbehlar yuzaga kelgan va mumtoz adabiyotda keng qo‘llangan. Xususan, “F.Sh.”da Moniy Xito mulkida tengsiz naqqosh bo‘lgani ta’riflanadi. “*Labing shavqida bir devonayi bandi naboti Misr, Soching savdosida bir po‘stpo‘shi nofai Chin ham”, “Chin kiyigi desam ko‘zin, vah nedurur itob anga, Chunki qarosi ko‘rguzur har sori mushki nob anga”, “Keldi chin naqqoshi ul yuz naqshini qilmoqqa tarh”* kabi misralari bunga dalil.

N. Farhodni Ch. xoqonining o‘g‘li sifatida gavdalantirishi yoxud “S.S.”da Diloromni Ch. da tengi yo‘q bir go‘zal, – deya ta’riflashi bejiz emas.

N. lirikasi ham Ch. nekbin tuyg‘ular ifodasi uchun qo‘llangan. M-n:

Ko‘zung Chin g‘azoli-yu ostida xoli,
Aning nofasidin tomib mushki Chin ham.

Yoki shu devondan boshqa bir bayt:

Orazing Chin naqshi, zulfung mushk-u
har yon xol xol erur,
Hind elikim Ching‘a kelmish
mushk savdo qilg‘ali.

N. ayrim o‘rinlarda Ch. va Xito(y)ni alohida joy o‘laroq tasvirlab: *“Xitoy-u Chin aro o‘n ikki ming shahr”*, deydi. Yana boshqa o‘rinda shunday yozadi:

Yigitliq ondakim arzoni etti,
Xitoy-u Chin elining xoni etti.

Yoxud:

Tushub olam aro g‘avg‘osi har yon,
Jahon mulkida vovaylosi haryon.

Farang ahlida zulmining fig‘oni,
Xito-u Chinda javri qo‘zg‘aloni.

Ad.: *Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик, 6-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Маҳмуд Кошғарий. Девони луғотит турк. – Т., 1960; Абдухолиқ Абдурасул ўғли. Чин ва Мочин. – Т., 2006.*

Q.E., E.Q.

CHINGA / CHINKA – xalq orasida keng tarqalgan nikoh marosimi qo‘shiqlaridan biri. N. “M.A.” asarida uning 2 xili bo‘lib, biri munsarihi matviyi mavquf vazniga tushishi, ikkinchi xili esa aruzning biror vazniga tushmasligi haqida ma’lumot beradi: “Yana “chinga”durkim, turk ulusi zifof va qiz ko‘churur to‘ylarida ani ayturlar, ul surudedur bag‘oyat muassir va ikki nav’dur. Bir nav’i hech vazn bila rost kelmas va bir nav’ida bir bayt aytilurkim, munsarihi matviyi mavquf bahridur va “yor-yor” lafzini radif o‘rnig‘a mazkur qilurlar, andoqkim:

Qaysi chamandin esib keldi sabo, yor-yor –
Kim, damidin tushti o‘t jonim aro, yor-yor?

Muftailun fo’ilon muftailun fo’ilon

N. “S.I.”da Iskandarning Ravshanak va Mehrnozga to‘y berib uylangani haqidagi 56-bobini quyidagi sho‘x-shodon misralar b-n yakunlaydi:

Mug‘anniy, tuzub chinga vaznida chang,
Navo chekki, hay-hay o‘lang, hoy o‘lang.

Desang senki, jon qardoshim, yor-yor,
Men aytayki, munglug‘ boshim, yor-yor.

Navoiy, chu sarmanziling Chingadur,
Surudung dog‘i sur aro chingadur.

Ch. hozirga qadar xalqimiz orasida yashab keladi – u “yor-yor” va “o‘lan” kabi nomlar b-n ataladigan to‘y-marosim qo‘shig‘ining aynan o‘zidir. Kelin kelganda olov atrofida o‘ynab, yor-yor aytadilar. V.V.Radlov ham Ch. so‘zini “nikoh to‘yida qo‘shiqchi va cholg‘uvchilarning kelinni kutib olish paytida aytadigan ashulasi” deb izohlagan. E.Umarov bu so‘zning etimologiyasini “chang” so‘zi b-n bog‘lab, “ovoza”, “shon”, “ma’lum bo‘lish” ma’nolariga ega ekani haqida yozadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Умаров Э. “Чинка” қандай қўшиқ” // “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2003, № 6; Исмоилов Ж. “Аёлгу” ва “Чинка” қўшиқлари Музайяна Алавия талқинида” // “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2012, № 4.*

E.U.

CHIN KO‘ZGUSI – Q.: Oyinayi chin;

CHINDOVUL (t.) – qo‘shinning orqa qismi; qo‘shin yoki harbiy bo‘linmani himoya qilish u-n orqadan kelayotgan qism (arergard). Soqa deb ham atalgan. N. asarlarida ham Ch. haqida

ayrim qaydlar uchraydi. M-n: “M.L.”da u yozadi: “Yana bir “vov” va “lom” ba’zi lafzg‘a ilhoq qilib, bir ma’abbir va bir maxsus sifatqa ta’yin qilurlarki, salotinning xoh razm asbobi uchun va xoh bazm jihoti uchun mo‘tabardur. Andoqki, *hirovul, qarovul* va *chindovul* va *yasovul* va *so‘zovul* va *patovul* va *kitpovul* va *yasovul* va *bakovul* va *shig‘ovul* va *laqovul*kim, alar mundin oriydurlar”.

Ad.: *Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. – Душанбе, 1987.*

E.O.

CHINORON JANGI (1469) – Husayn Boyqaro bilan Yodgor Muhammad o‘rtasida bo‘lgan jang. Unda N. ham ishtirok etgan. Jangdan oldin Husayn Boyqaro va amirlar munajjimlarni chaqirmoqchi bo‘lganlar. Munajjimlar qulay, “sa’d” (baxtli, qutlug‘) vaqtni belgilab berishlari kerak edi. Lekin N. bunga qarshi chiqqan va bu vaqtning boy berilishiga sabab bo‘luvchi behuda ish ekanini aytib, iloji boricha tezroq harakat boshlashni taklif qilgan va Husayn Boyqaro bu fikrni quvvatlagan. Asosiy jangdan bir kun burun har ikki qo‘shinning ilg‘or qismlari o‘rtasida to‘qnashuv bo‘lgan. Husayn Boyqaro yuborgan qism Yodgor mirzoning Ali Jaloyir boshchiligidagi ilg‘or qismi tomonidan mag‘lubiyatga uchratilgan. Ertasi kuni asosiy, hal qiluvchi jang bo‘lib o‘tgan. Husayn Boyqaroning o‘zi lashkarning qalbida (markazda) turgan. Amir Muborizuddin Valibekka soqa sardorlik, Kichik mirzoga lashkarning o‘ng va Abduxoliqbekka so‘l qo‘li topshirilgan. Hasan Shayx Temur, Mo‘g‘ulbek, Shayx Abusaidlar hirovullikka tayinlangan. Yodgor mirzo qo‘shini esa quyidagi tartibda yasol tuzgan: barong‘orda: Amir Ali Jaloyir; javong‘orda: Amir Ahmad Ali Forsiy barlos, Sulton Husaynbek Arhangiy; hirovulda Ayyub Shayx jaloyir va Muhammad ko‘kaltosh. Jang boshlanganda Valibek Yodgor mirzo qo‘shining javong‘origa hujum qilib tor-mor keltirgan. Boshqa tomondan Amir Hasan Shayx Temur hamla qilgan. Yodgor mirzoga ko‘mak berish u-n kelgan turkmanlar qattiq hujumlar uyushtirib, Husayn Boyqaro lashkarining markaziga yaqinlashib kelgan vaqtida Husayn Boyqaro shaxsan o‘zi jangga kirgan va ularning ustiga shiddat b-n bostirib borib, chekinishga majbur qilgan. Husayn Boyqaroning bu hujumi jang taqdirini hal qilgan va Yodgor Muhammad mirzo yengilib qochgan. Uning lashkaridan juda ko‘p kishilar o‘ldirilgan va asir qilib olingan.

Ad.: *Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. 2-жилд. – Т., 2008; Навоий замондошлари ҳотирасида. – Т., 1985.*

Q.E.

“CHIQTI OV AZMIG‘A JAVLON AYLAB UL CHOBUKSUVOR...” – N.ning birinchi marta “B.B.” devoniga kirgan va taxminan yigitlik davrida yozilgan g‘azali. Ramali musammani maqsur vaznida. 7 baytdan iborat.

Chiqti ov azmig‘a javlon aylab ul chobuksuvor,
Jon nisor ul sayd uchunkim, jon anga qilg‘ay nisor.

Bu edi qasdimki bir kun saydi fitrok aylagay,
Qilg‘anim umre kiyiklar birla suhbat ixtiyor.

Chun kiyik qatlini istar, koshki ruhum uchub,
Bir qatil etgan kiyik jismi aro tutqay qaror.

Toki yetkursam rikobig‘a boshimni, koshki,
Qilsa shaxsimni qazo it shakli birla oshkor.

Qomati hajrida har yon yoradin qonlig‘ ko‘ngul
Bir kiyikdekdurki, o‘q zaxmi bila bo‘lmish figor.

Go‘r uchun ochmoq nedur har lahza bahromi kamand,
Chun seni Bahromdek aylar ajal go‘ri shikor.

Ey Navoiy, ul quyoshning soyasida ko‘r itin
Komronu yo‘q sanga ollida itcha e’tibor.

G‘azalda ma’shuqa ovchi chavandoz qiyofasida tasvirlangan bo‘lib, N. davrida ov qilishda, adabiy asarlardan o‘sha davr miniatyuralaridan ma’lumki, ayollar ham qatnashgan. G‘azalning originalligi, avvalo, ma’shuqaning odatdagicha nazokati ayol qiyofasida emas, balki jasorat maydonida jangovar holatda ko‘rishishi, tap tortmasdan jonivorlarga tashlanishi, ularning qonini to‘kib, o‘lja sifatida qo‘lga kiritishidadir. Hayotda doim faol harakatda turgan shoir ov sharoitida yorning mahorat b-n kiyiklarni ovlashini ijobiy baholaydi va iloji bo‘lsa, u o‘ldirgan kiyik u-n o‘z jonini berishga tayyorligini aytadi:

Chun kiyik qatlini istar, koshki ruhum uchub,
Bir qatl etgan kiyik jismi aro tutqay qaror.

Oshiq ov manzarasini tomosha qilar ekan, sevgilisi mingan otning uzangisiga boshini qo‘yishini, it shakliga kirib, u b-n yonma-yon yurishini orzu qilishdan or qilmaydi:

Toki yetkursan rikobig‘a boshimni, koshki,
Qilsa shaxsimni qazo it shakli birla oshkor.

Shu b-n birga g‘azalning insonparvarlik mohiyati shundaki, lirik qahramon oshiq yuragining ich-ichida kiyiklarning odamlarning xursandchiligi yo‘lida jabr chekib o‘ldirilishini va yarador bo‘lishini qoralaydi, o‘z qalbini yor o‘qidan zaxmdor bo‘lgan kiyikka tashbih etadi:

Qomati hajrida har yon yoradin qonlig‘ ko‘ngul
Bir kiyikdekdurki, o‘q zaxmi bila bo‘lmish figor.

Bundan keyingi baytlarda esa shu g‘oya yanada chuqurlashtiriladi va go‘r (yovvoyi eshak) oviga o‘ch shoh Bahromni eslab, u go‘rlarga qanday ziyon yetkazgan bo‘lsa, taqdir ham uni shunday jazolagan edi, hozir ham shunday bo‘ladi, – deydi:

Go‘r uchun ochmoq nedur har lahza bahromi kamand,
Chun seni Bahromdek aylar ajal go‘ri shikor.

Maqta’da N. yana lirik mavzuga qaytib, sevgilisi o‘z yonida ketayotgan itga N.ga nisbatan ko‘proq e’tibor qilayotganini, o‘zining esa yor “ollida itcha e’tibori” yo‘qligidan shikoyat qilishi b-n g‘azalni tugallagan. G‘azalda xursandlik b-n xafachilik, lirik mazmun b-n ijtimoiy mazmunning qo‘shilib, omixta bo‘lib ketgani u-n chuqur hayotiylik bag‘ishlagan.

Ad.: *Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик, 3-жилд. – Т., 2011.*

Ab.H.

CHIG‘ATOY – turkiy qabila – urug‘ nomi, etnonim. Tarixiy-adabiy manba va hujjatlarda Ch. haqida ko‘plab ma’lumotlar bitilgan. N. asarlarida ham turkiy xalq va qabila-urug‘ nomi sifatida xabarlar bor. Shoir ulardan turli maqsad va so‘z muddaolarida foydalangan. N. Ch.ni so‘z va chig‘atoy lafzi, chig‘atoy ulusi, chig‘atoy mirzalari kabi birikma shaklida qo‘llagan. Mazkur etnonim uning “N.N.” devoni hamda “M.L.”, “H.S.A.”, “M.N.” kabi nasriy asarlari matnida uchraydi.

Shoirning “N.N.” devonidan o‘rin olgan 7 baytli “Muhandise topa-yu egnima qanot yasatay, Uchub havosida qushlar aro o‘zumni qotay” matla’ b-n boshlanuvchi g‘azalning maqta’sida Ch. so‘z shaklida uchraydi:

Navoiy o‘yla ulus xonig‘a erur oshiq,
Ki, turk qullari Jo‘chidur aning-u Chig‘atoy.

“M.A.”da chig‘atoy xalqi tarzida berilgan, o‘qiymiz: “Yana turk ulusi, bataxsis chig‘atoy xalqi aro shoyi’ avzondurkim, alar surudlarin ul vazn bila yasab, majolisda ayturlar.”

“H.S.A.”da N. ustozi “suhbati va so‘zi xush” Sayid Hasan Ardasherning suhbatdoshlari haqida gapirganda, o‘z davrning ulamo fozillari va ashrof-u imomlari qatorida chig‘atoy ulusining beklarini ham tilga olgan: “Asrning ulamo va ashrof va aimmasi bila doim musohib erdilar va chig‘atoy ulusining oliy miqdor beklari ulcha yoshg‘a

va yo‘lg‘a alardin ulug‘ erdilar va ulcha teng erdilar, alarni sharafi nafs jihatidin o‘zdin ulug‘ tutub, anga ko‘ra ta’zim qilurlar erdi.”

Ma’lumki, N. “M.N.” tazkirasini Qosim Anvorga bag‘ishlab yozgan fiqra bilan boshlagan. Unda Qosim Anvorning ixroji va yana Hirotga qaytib kelishi, muridlari xususida gapirgan bayonda uning muridlari safida chig‘atoy mirzalari ham borligiga alohida urg‘u bergan. Chunonchi: “Balx va Samarqand sari borib, muddate bo‘lub, yana dor us-saltanat azimati qildilar, yana Chig‘atoy mirzodalari, balki ulus ozadalari murid bo‘lub, hujum qila boshladilar. Ravishlari pok erdi va nafaslari otashnok.”

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Ҳолоти Саид Ҳасан Ардашер. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011.*

B.R.

CHOVUSH (t.) – 1. Lashkar yoki karvonning oldida boruvchi. 2. Lashkarning muayyan qismining yetakchisi. 3. Hudaychi; saroy amaldori. 4. Eshik og‘asi, yasovul. 5. Xizmatchi; qorovul. N. she’riyatida ham yuqoridagi ma’nolarda ishlatilgan. M-n:

Ishq chovushlari yuz qofilani har lahza
Ko‘yidin mulki fano sori ravon ayladilar.

Ad.: *Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдли, 3-жилд. – Т., 1984; Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. – Душанбе, 1987; Фарҳанги забони тожики. Жилд 2. – М., 1969.*

E.O.

CHOR DEVON (f.) – to‘rt devon. N.ning 4 devondan iborat “X.M.” devonlar turkumi adabiy davralarda, xalq orasida shunday nom b-n mashhur bo‘lgan. (Q.: “Xazoyin ul-maoniy”).

E.O.

CHORZARB (f-ar.) – O‘zbek musiqasidagi “Shashmaqom” kuylaridan birining nomi. N. “H.P.M.” asarida mazkur kuy nomi tilga olingan: *“Bu amalda base maqomot va shaabote darj qilib erdikim, ta’rifdin mustag‘nidur va asru dilpazir va bag‘oyat benazir bog‘lanib. yana ishlar ham misli: “qavl” va “g‘azal” va “chorzarb”-dek va “savt” va “naqsh” xud behaddu add bog‘labdurki, xaloyiq orasida mashhurdurki, borchasin darj qililsa mujibi itnob bo‘lur”*. Ma’lum bo‘ladiki, shoirning qirq yillik “mahrami sirri nihoniy”si – Pahlavon Muhammad kurashlarda kuragi yerga tegmagan mashhur pahlavon bo‘lish bilan birga musiqa ilmida zamonasining mashhurlaridan bo‘lgan, maqomot – musiqashunoslik ilmida Shashmaqom, Xorazm maqomlari va Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llarining majmuasi va shaabote – musiqa yo‘llariga kuylar qo‘shgan. Jumladan, Pahlavon Muhammadning yaratgan “Qavl”, “G‘azal”, “Savt”, “Naqsh” kuylari qatorida “Ch.” ham xalq orasida mashhur bo‘lgan.

N. asarlari musiqa nazariyasi, musiqiy cholg‘ulariga doir ko‘plab ma’lumotlarga boyligi bilan ham ilmiy ahamiyatga ega. Shubhasiz, ular XV asrdagi madaniy muhit haqida to‘la tasavvur beruvchi manba vazifasini ham o‘taydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Ҳолоти Паҳлавон Муҳаммад. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Навоий асарлари луғати. Тузувчилар: Порсо Шамсиев, С.Иброҳимова. – Т., 1972.*

S.O‘.

CHORSU – XV asrda Hirot shahrining markaziy qismi.

Ab.H.

CHOSHNI (f.) – 1. Sinash, mazasini bilish u-n tatib ko‘riladigan ozgina taom, shirinlik, sharob va boshqa; narsaning ta’mini bilish, xususiyatidan ogoh bo‘lish. 2. Maza, ta’m, lazzat, bahra, halovat; rohatlanish, lazzatlanish. 3. Yaxshilik, ma’qullik; sifat, namuna. N. asarlarida bu

so‘z o‘zining barcha ma’no qirralari b-n namoyon bo‘ladi. M-n:

Zotimda chun mayi azaliy choshnisi bor,
Har sori mast ko‘z solib, andoqki tokmen.

“M.N.” tazkirasida Ch. adabiy istiloh maqomiga ko‘tarilib, shoirlarning she’rlarini baholash mezoni bo‘lib xizmat qiladi. M-n, N. Shohiy Sabzavoriyning shoirlik mahorati xususida fikr yuritar ekan, “Aning she’rini choshni va salosat va yakdastlik va latofatida ta’rif qilmoq hojat emas”, – deydi. Mavlono Qambariy haqida “nazm ayturg‘a cholok erdi va she’rida ham choshni bor”, – deb yozadi. Mirzo Hoji So‘g‘diyning bir bayti haqida gapirar ekan, “Bu baytida xeyli so‘z rangi va choshnisi bor”, degan fikrni bildiradi. Ma’lum bo‘ladiki, Ch. so‘zini N. she’rni she’r qiladigan xususiyatlar – badiiy go‘zallik, yetuklik, harorat, nafosat, noziklik; dard, zavq, bahra ma’nolarida qo‘llagan.

“N.M.”da shayxlarning holiga baho berganda ham, Ch. so‘zidan foydalanadi. M-n: Mavlono Mahviy haqida “Tab’ida xiylig‘ina choshni bor” deb yozsa, Bobo Sho‘rida haqida “tab’ida ko‘p choshni zohir bo‘lur” deydi.

Choshnilig‘ – bahramandlik; ma’qullik, yaxshilik. M-n: “Mavlono Ahliy... bu matla’si ham xeyli choshnilig‘ tushubtur”.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик, 3-жилд. – Т., 1984; Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. Душанбе, 1987; Фарҳанги забони тожики. Жилд 2. – М., 1969.*

E.O.

CHOG‘IR – (eskit.,) – may, sharob. Ch. – asosan, shirin ta’mga ega bo‘lgan, quyuq va mo‘tadil quvvatli (ta’siri kuchli ham, kuchsiz ham emas) ichkilik. O‘tmishda uzumning maxsus navlaridan tayyorlangan. N. g‘azallarida Ch. ma’shuqa go‘zalligi va ishq-muhabbat tuyg‘ularini yuzaga chiqaruvchi o‘ziga xos poetik obraz bo‘lib keladi. M-n:

Qaddi havosida labidin rohat istaram,
Ichsam kerak mudom ***chog‘iri mo‘tadil*** *bila.*

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011.*

M.A.

“CHU DUSHMAN O‘LDI QADIMIY...” – N.ning “G‘.S.” devoniga kiritilgan qit’asi:

Chu dushman o‘ldi qadimiy ziyonidin hazar et,
Agarchi nutqi ravonbaxshi jonga rohat erur.
Suv birla o‘t aro ziddiyat o‘ldi chun azaliy,
Agar hayot suyidurki, o‘tqa ofat erur.

N. dushmanlik tuyg‘usining zararli oqibatlari, xususan, dushmanga munosabatdagi ehtiyot va hushyorlik haqida qayta-qayta gapirganlar. “M.Q.”ning bir o‘rnida: “Dushman aldoviga uchma... Dushmanning g‘arazi o‘z yomon niyatiga yetmoqdir...” deyilsa, boshqa bir joyida: “Zo‘r dushmaning mag‘lub bo‘lsa shodlanma, uning ishidan g‘ofil bo‘lma. Uni jazolashda sabrli bo‘lish, muomalada ehtiyotkorlik lozimdir”, deya nasihat beriladi. Deylikki, zo‘r dushman – qadimiy dushman. G‘animlik hissiyotlarining umri cho‘zilgan sayin, ularning ziyon tig‘lari ham o‘tkirlashadi. Nega shunday? Bu qit’ada mana shu savolga mukammal bir javob bor. Dushmanlik qaysidir vaziyatlarda hiylagarlik mug‘ombirlikdir. Tilyog‘lamalik ham yovning sinovlardan o‘tgan quroli. Dushman shirin so‘zlari b-n jonga rohat berishi mumkin. U bu ishni makkorlik b-n eplaydi ham. Ammo bunday “rohat” chalg‘ituvchi g‘aflat tuzog‘idir. Bobomiz ayni shu narsadan “hazar et!” – deydilar. Buning isboti u-n o‘t va suv orasidagi ziddiyatni eslatadilar. Chindan

ham o‘t va suv o‘rtasida azaliy ixtilof bor. Suv, shoir aytmoqchi, garchi hayot suvi bo‘lganida ham o‘tning zavoli. Suv bor joyda olov yonmaydi. Olovning umri tugaydi. Lekin bu oddiygina mantiq ko‘zgusida qadimiy dushmanning ham qilmishi, ham sovuq basharasi kutilmaganda ravshanlashib ketadi. N. bu she’rni yozganlarida, dushmanga dushmanlik qilmoq kerak, degan niyatni ko‘zlamaganlar. Balki kunlar va oylar emas, yillar davomida kin-u adovat pichoqlarini ichida yaltiratib yurgan g‘animingning kimligini bil, uning tilidagi shakaridan hazar qil, demoqchi bo‘lganlar. Bu bugunning ham gapidir. Bu – odamni g‘araz, hasad, tuhmat toshlaridan ehtiyot bo‘lmoqqa undovchi hikmatli so‘zlardir.

Ad.: *Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик, 1-жилд. – Т., 2011; Ҳаққул И. Касби камол ўзни танишдир. – Т., 2021.*

I.H.

“CHU RAZL HAVSALASIZDUR...” – N.ning “B.V.” devonidan o‘rin olgan qit’asi:

Chu razl havsalasizdur, ne tong, agar nogah,
Yetishsa muknat anga, arjumand tutqay o‘zin.
Chu sukr boisi nisyon erur ajab ermas
Ki, joh ani mast aylagay, unutg‘ay o‘zin.

Inson xulq-atvorini chuqur bilish, uning holini, ahvolidagi o‘zgarishlarni yaxshi anglash b-n bevosita bog‘liqdir. N. qit’a janridagi she’rlarida axloq-odob, ta’lim-tarbiya masalalariga diqqatni jalb etsa-da, aslida ularning aksariyatida holning sirlari, ijobiy yoki salbiy hollarning aql va axloqqa ko‘rsatgan ta’sirlari ham tadqiq etiladi. Razl – past, tuban, yaramas tabiatli kimsa degani. Razolatga o‘ch, razillik yo‘lidan yurgan odamda hech vaqt ochiq va mardona bir harakat bo‘lmaydi. U niyatini yashirish, payt poylab, kun o‘tkazishga mahkum. Ana shu sabablarga ko‘ra ham N. razlni havsalasiz, deya ta’riflaydi. Lekin bu aldamchi havsalasizlikdir. Tasavvur qiling, bir pastkash balandroq bir amal yoki martabaga erishdi. Nima bo‘ladi? Unda birinchi ko‘zga tashlanadigan kayfiyat izzattalablik bo‘ladi. Ya’ni N. aytmoqchi, o‘zni “arjumand” tutadi.

Odamlar orasida “Amal har qanday kishini o‘zgartiradi”, degan qarash bor. Aslida esa bu sayozlik, ojizlik, havoyilik, xususan, razillikning yuzaga qalqishidirki, bunda amalni ayblash o‘zini uncha oqlamaydi. Mansab va martaba o‘zni unutishga, “Kim eding-u, kim bo‘lding”, degan savol xususida bosh qotirmaslikka imkon beradi. Bu esa mastlik holatidan deyarli farqlanmaydi. Buni ko‘p marotaba ko‘rgan, kuzatgan N. yozadi:

Chu sukr boisi nisyon erur ajab ermas
Ki, joh ani mast aylagay, unutg‘ay o‘zin.

“Nisyon” – o‘zni unutish. O‘tkinchi dunyo omadlari yuz ochganida tuban kimsalar o‘zlarini arjumand etsalar, bundan ajablanmang. Chunki ular kim ekanliklarini darhol esdan chiqaradilar. Baland amal-u martaba “sharobi”dan mast bo‘lganlar, albatta “unutg‘ay o‘zin”, deydi donishmand shoir. Bu gap faqat o‘tmishning emas, bugunning ham eng muhim va dolzarb gapidir.

Ad.: *Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик, 3-жилд. – Т., 2011; Ҳаққул И. Касби камол ўзни танишдир. – Т., 2021.*

I.H.

“CHUN MANGA LUTF ETTI SHOH... ” – N.ning qit’asi:

Chun manga lutf etti shoh devonda muhr,
Bu edi eldin quyi muhr o‘rmog‘im.

Kim erur nafsi sarkash ma’nig‘a,
Barchadin bo‘lg‘ay quyi o‘lturmog‘im,

Chun shikastayi nafs hosil bo‘lmadi,
Mundin o‘ldi muhrni sindurmog‘im.

Tarixchi Mirxond “Ravzat-us-safo” kitobida Hazrat N.ga muhrdorlik mansabi berilganligi ha-

qida yozadi: “Xayr-u ehson, latofat va ko‘ngil zarofati bobida amir Alisherning tengi yo‘qligidan jahongir podshohning (Husayn Boyqaro nazarda tutilgan – I.H.) xotiri hamma vaqt unga moyil bo‘lib, ulug‘lik vazirlik va amirlik martabasini unga in’om etdi. So‘zning qisqasi shulki, avval ul hazrat ulug‘ muhrni amir Alisherning qo‘liga tutqazdi va ul amir bir necha vaqt muhrdorlik lavozimida qoyim turib, xizmatkorlik poyasini yuqori osmondan ham o‘tkazdi”.

Oradan ancha muddat kechgach, shoir bu mansabni tark etmoqchi bo‘ladi va maqsadini podshohga yetkazadi. Iltimos qabul qilinadi. Lekin Husayn Boyqaro N.ni yanada yuqoriroq martabaga – devoni oliy amirligi mansabiga tayinlamoqchi bo‘ladi. Shoirning qarshiligiga qaramasdan, bu ish amalga oshiriladi. Husayn Boyqaro “ma’lum soatda muhr bossin” uchun hazrat N. qo‘liga nishon berganida u kishi, Mirxond aytmoqchi, “nafsi siniq bo‘lganidan, nishonning shunday joyiga muhr bosadikim, undan pastroqqa muhr bosishga” joy qolmaydi.

Bu qit’a ana shu voqealar taassurotida yozilgan. Birinchi satrdagi “chun manga lutf etti shoh...”, degan fikr – tarixiy haqiqatga to‘la mos fikr. Ikkinchi satrdagi gap ham to‘g‘ri: muhr eng quyi joyga bosilgan. Bunga Mirxondning so‘zlari guvohlik berib turibdi. Olimning e’tiroficha, “xos-u avomni” hayron qoldirgan bu voqeaning sodir bo‘lishiga sabab N.ning bag‘oyat kamtarligi, kamsuqumligi, xullas, nafsi siniqligi. Barchadin “quyi o‘lturmog‘”, sirtdan nazar tashlanganda, favqulodda ishmas. Ammo o‘sha vaziyatda N. u-n bu jiddiy holat edi. Chunki g‘urur va “nafsi sarkash”ni mag‘lubligi tasdiqdan o‘tkazilgandi.

Mirxondning guvohligiga ko‘ra, o‘shandan so‘ng N. muhr bosgan joy “muhrga ega bo‘lgan har bir mansabdor orasida talash” bo‘lgan ekan. N.dan ibrat olish mumkin. Biroq hech bir ishda u bilan musobaqa qilish imkoni bo‘lmagan. She’rning oxirgi baytidagi mazmunga diqqat qiling:

Chun shikastayi nafs hosil bo‘lmadi
Mundin o‘ldi muhrni sindirmog‘im.

Albatta, muhr sindirilmagan. Lekin “shikastayi nafs hosil” bo‘lmagach, baribir chora axtarish kerak-ku! Chora topilgan. Shuning u-n ham ulug‘ shoir muhrni xayolan sindirib tashlagan. Taniqli olim Alibek Rustamov nafsning axloqiy jihati b-n bog‘liq istilohiy so‘z va bir necha ibora ma’nolarini izohlab, “nafsi mutmainna”ni bunday sharhlaydi: “Nafsi mutmainna” iborasidagi “mutmainna” so‘zi ishonch hosil qilgan, xotirjam bo‘lgan degan ma’nodadir. “Nafsi mutmainna” sohiblarining nafsi batamom jilovlangan bo‘lib, bular nafsning g‘alayonidan qutulgan xotirjam kishilardirlar. Boshqacha qilib aytganda, bular nafs talablarini xayolga ham keltirmaydigan aziz kimsalardir. Bularga eng yuksak insoniy xislatlar xosdir. N. muhr bosmoq marosimida ham eng yuksak insoniy xislatlar sohibi ekanligini namoyish qilgan edilar.

Ad.: *Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. ТАТ. 10 жилдлик, 1-4-жилдлар. – Т., 2011; Ҳаққул И. Касби камол ўзни танишдир. – Т., 2021.*

I.H.

“CHU NAVKARGA BERDING IJOZAT, YANA...” – N.ning “B.V.” devoniga kiritilgan qit’asi:

Chu navkarga berding ijozat, yana
Kelib, qilsa xizmatqa quldoshliq.
Bil andoqki, juftunga bersang taloq,
Yana istagay qilmoq o‘ynoshliq.

Navkar so‘zi hozir, asosan, askar ma’nosida tushuniladi. Lekin bu she’rda u nufuzli biror mansabdorga yordamchi – xodim mazmunini ifodalaydi. Oqil va tadbirli boshliq kimlarnidir ishga tayinlashda ham, vazifasidan ozod etishda ham, albatta, shoshmashosharlik va adolatsizlikka yo‘l qo‘ymaydi, balki “yetti o‘lchab, bir kes”, qabilida hukm yuritadi. Deylikki, qonuniy ehtiyoj va zaruriyat tufayli qaysidir bir xodim martabasidan chetlashtirildi. Uning yana qaytib kelib,

“xizmatqa qo‘ldoshlik” qilishi to‘g‘rimi? Qit’adagi hukm bo‘yicha, bunday hamkorlik noto‘g‘ri. Bu b-n munosabat va faoliyatdagi subutsizlik qoralanadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик, 3-жилд. – Т., 2011; Ҳаққул И. Касби камол ўзни танишдир. – Т., 2021.*

I.H.

“CHUN G‘ARAZ SO‘ZDIN ERUR MA’NI ANGO...” – N.ning “B.V.” devonidan o‘rin olgan qit’asi:

Chun g‘araz so‘zdin erur ma’ni ango,
Noqil o‘lsa xoh xotun, xoh er.
So‘zchi holin boqma, boq so‘z holini,
Ko‘rma kim der oni, ko‘rgil kim na der.

“So‘z borkim, eshituvchi taniga jon kiyurur va so‘z borkim, aytguvchi boshini elga berur”, – deyiladi “M.Q.”da. Eshituvchining taniga jon kirgizadigan so‘z – ma’nili so‘z. U, avvalo, o‘ylangan, ko‘ngulda pishitilib, aniq maqsadga yo‘naltirilgan bo‘ladi. U faqat to‘g‘rilikka xizmat qiladi, anglanmaganni anglatib, e’tiborga loyiq va zarur haqiqatlarni ifoda etadi. Shuning u-n gapiruvchi kishi – u xoh xotin, xoh erkak bo‘lsin, ma’nili fikr aytishi, so‘zlashdan maqsad – mazmun ekanligini unutmasligi zarur. Maza-matrasiz so‘zlar b-n, bema’ni gaplar, albatta, farqlanadi. She’rning ikkinchi baytida buni xatosiz anglash “usul”laridan biri, balki eng asosiysi bayon qilingan:

So‘zchi holin boqma, boq so‘z holini,
Ko‘rma kim der oni, ko‘rgil kim na der.

Darhaqiqat, so‘zlovchining holi kishini, ehtimolki, chalg‘itar. Biroq “so‘z holi”ga nazar tashlash, bevosita fikr tabiiyligiga doxil munosabat esa tinglovchini aldanish va yuzaki hukmlardan qutqazadi. Shuning u-n har qanday naql qiluvchining kimligiga emas, nima deyishiga qarash kerak.

Ad.: *Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. ТАТ. 10 жилдлик, 3-жилд. – Т., 2011; Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Т., 2011; Ҳаққул И. Касби камол ўзни танишдир. – Т., 2021.*

I.H.

CHUSTIY (1904–1983) – shoir, tarjimon. Nabixon (Nabixo‘ja) Nurillaxo‘ja o‘g‘li Ch. 1904-y. Namanganning Chust tumanida tavallud topgan. Yoshligida eski maktab va madrasalarda tahsil olgan Ch. keyinchalik Toshkentda faoliyat yuritgan. Muqimiy nomidagi musiqali drama teatri, O‘zbekiston Yozuvchilari uyushmasi Adabiyot jamg‘armasida turli lavozimlarda, O‘zR FA Til va adabiyot instituti (hozirgi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti)da ilmiy xodim bo‘lib ishlagan. Adabiyotga mehri baland bo‘lgan Ch. butun umrini ijodiy faoliyat va she’riyatga bag‘ishladi. Mumtoz she’riyatning turli: g‘azal, ruboiy, tuyuq, qit’a, mustazod, muxammas, musaddas, murabba’, masnaviy janrlarida qalam tebratdi. Ch. qator she’riy to‘plamlar va turli sahna asarlari bilan birga “Hayotnoma”, “Sadoqat gullari, “Ko‘ngil tilagi”, “Ko‘rguncha xayr endi” devonlari hamda “Zafarnoma”, “Tirik jannatga kirgan kampir”, “Kiyiknoma”, “Gul sadosi”, “Uyg‘urobod”, “Bog‘i Eram” kabi dostonlari muallifi hamdir. U zullisonayn shoir bo‘lib, o‘zbek va tojik tillarida ijod qilgan. O‘zbek mumtoz she’riyatining yetuk vakillari – N., Bobur, Mashrab, Fuzuliy, Zebuniso, Nodira, Muqimiy, Furqat hamda fors-tojik adabiyotining Rudakiy, Sa’diy, Hofiz, Jomiy, S.Ayniy, Lohutiy kabi ulkan siymolarini ustoz deb bilib, ular ijodidan ta’sirlangan, g‘azallariga taxmislar bog‘lagan. Ch.ning o‘zbek n.shunosligi rivojida xizmatlari alohida ahamiyatga ega. Xususan, Ch. “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”ni (1, 2-j.) tuzishda ishtirok etgan hamda “D.F.”ga kirgan g‘azallarni o‘zbek tiliga tarjima qilgan.

Ad.: *Алишер Навоий. Девони Фоний. ТАТ. 10 жилдлик, 5-жилд. – Т., 2011; Чустий. Садоқат гуллари девони. – Т., 1992; Мирвалиев С. Ўзбек адиблари. XX аср ўзбек адабиёти. – Т., 2000.*

E.Q.



CHO‘LPON (Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li) (1897, Andijon – 1938, Toshkent) shoir, o‘zbek lirik nasri asoschisi, yozuvchi, dramaturg, mohir tarjimon. Shuningdek, uning “Adabiyot nadur?” singari o‘nlab ilmiy maqolalari zamonaviy adabiyot va adabiyotshunoslik ravnaqiga katta hissa qo‘shgan. Istiqlolning ilk yillarida Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti, 1999-y.da “Mustaqillik” ordeni berilgan. Dastlab madrasa, so‘ngra rus-tuzem maktabi tahsilini olgan Ch. fors, arab, rus tillarini yaxshi o‘rgangan va mazkur tildagi badiiy adabiyot b-n chuqur tanishish imkoniyatiga ega bo‘lgan. “Ulug‘ hindiy” maqolasida: “O‘zimning yo‘lsizligimdan biroz so‘zlab o‘tayin. N., Lufiy, Boyqaro, Mashrab, Umarxon, Fazliy, Furqat, Muqimiylarni o‘qiymen: bir xil, bir xil, bir xil!” – degan Ch. N. tavlludining 500 yilligi arafasida “O‘zbek bilim hay’ati e’tiboriga 500 yil” nomli murojaatnoma yozadi. Bu murojaatnoma N. sharafiga o‘tkaziladigan tadbirning nechog‘lik zarurligidan tortib, ushbu anjumanning qanday o‘tkazilishi rejasigacha ko‘rsatib bergan. Unda, avvalo, N.ning shoirlik mavqe-martabasidan so‘z ochiladi: “Chig‘atoy adabiyoti va tiliga Navoiyning qilgan xizmati juda ulug‘dir. U kungi yangi o‘zbek adabiyoti va uning bu kungi sodda shevasi, menimcha o‘sha chig‘atoy shevasidan o‘zga emasdir. Ba’zi bir kishilar N.dan ancha keyin chiqqan adib va shoirlarimizdan bir-ikkita soddaroq yozg‘anlarini ushlab olib, ularni haddan tashqari ko‘tarmak b-n narigini bir qadar tubanlashdirmoqchi bo‘lsalar ham, Navoiy o‘zbek tili va adabiyotida tegishlik yuksak mavqeni olgandir”. Mashhur usmonli yozg‘uchisi Shamsiddin Somibekning usmonli adabiyotining ulug‘ vakili Fuzuliyni N.dan keyingi o‘rinda ekanligi haqidagi qarashlariga tayangan holda, N.ning nafaqat o‘zbek qavmi, balki umumturk xalqi adabiyotida o‘ziga yarasha mavqedaligini dalillaydi. O‘z adiblariga 5-6 asrlik umr yashata bilgan xalqlar uncha ko‘p emasligini ta’kidlagan shoir N.ning 500 yilligini katta bir shodlik, bayram tarzida tantana qilinishi lozimligini adabiyotshunos nuqtayi nazaridan isbotlay oladi. Ch.dagi ilmiy aniqlik, fikrlashdagi tizimlilik mazkur murojaatnomada ham yaqqol ko‘rinadi. Uning anjumanni munosib darajada o‘tkazish u-n qo‘ygan 7 ta talab va rejasi o‘z davrida n.shunoslik uchun qanchalar muhim bo‘lgan bo‘lsa, bugun ham shunchalar qimmatlidir:

1. Hozirdan boshlab yaraliq kishilarimizdan bir hay’at tashkil qilib, 500 yillik bayramini mumkin qadar tantana b-n o‘tkazish yo‘lini topmoqqa o‘shal hay’at vakil qilinsun.

2. Hay’at N.ning bosilmag‘an asarlarini topib, bosdirishga lozim ko‘rulganlarini bayramgacha bostirish chorasini ko‘rsun.

3. N.ning mukammal tarjimayi holi yozdirilsun.

4. N.ning shevalaridan terma bir asar tuzulib, nafis qilinib bosdirilsun.

5. N. nomiga yuqori o‘qush yurtlarining adabiyot-til fakultetlarida o‘zbek talabalari u-n istependiyalar ochilsun.

6. O‘zbekistonning poytaxtida N.ga haykal tikulsun.

7. Ba’zi bir o‘zbek shaharlarining ko‘cha ismlari N. otig‘a quyulsun.

Ch. N.ga bag‘ishlab maxsus she’r yoxud shoirning aniq g‘azallariga o‘xshatmalar yozmagan bo‘lsa-da, ulug‘ ijodkorning beqiyos adabiy merosidan ta’sirlangani shubhasizdir.

Ad.: *Чўлпон. Асарлар 4 жилдлик. IV жилд. – Т., 2016.*

Z.R.

CHO‘PON – “L.M.” dostonining epizodik personajlaridan biri. Layli qabilasining cho‘poni. U Qaysni Hay qabilasidagi maktabda o‘qib yurgan paytidan tanir edi. Ikki yoshning pok sevgisini ham bilar, ular boshiga tushgan savdolar-

dan ham boxabar edi. Shuning u-n ham dashtda o‘zini bilmay yurgan Qaysga o‘zini tanitib, unga yordamlashishga tayyorligini bildiradi:

Seni ko‘rub erdim ul hashamda,
Maktabda saboq o‘qur alamda...

Ishqing alamin dag‘i bilurmen,
Har chora qilay desam qilurmen.

Ch.ning bu so‘zlari Masih kabi Majnunning umidsiz vujudiga jon bag‘ishlaydi, Xizr kabi hayot chashmasini ko‘rsatganday bo‘ladi, tayog‘i Musoning asosi kabi sehrli tuyuladi. Qays undan Laylining qabilasiga olib borishini, sevgilisi b-n ko‘rishishga yordam berishini so‘raydi. Ch.ning maslahatiga ko‘ra, kechgacha u b-n qolib, qorong‘i tushgach, bir qo‘y terisini yopinib, qo‘ylar suruvi b-n birga qabilaga kirib boradi. Layli dugonalari b-n qo‘ylarning sog‘ilishini tomosha qilish u-n poda to‘xtagan joyga keladi. Yulduzlar ichra oydek porlab turgan Laylini ko‘rgan Majnun qattiq oh urib, so‘yilgan qo‘ydek yiqiladi. Qo‘ylar hurkib, har yoqqa qochadilar. Dasht o‘rtasida Majnun o‘likday cho‘zilib yotar edi. Uning nolasi Layli qulog‘iga yetib, qizning yuragi kuygancha voqea joyiga keladi. Oshig‘ining bu ahvolini ko‘rgan ma’shuqa ham bir oh urib, hushini yo‘qotadi. Tuproqqa yiqilib, ikkalasi yonma-yon yotadi.

Oshiqki erur ishida sodiq,
Ma’shuq bo‘lur boshida oshiq, –

deb xulosa qiladi N.

Shu tariqa, Ch.ning yordami b-n Layli va Majnun yana bir marta diydor ko‘rishadilar. Lekin ikkalasi ham bir-birini ko‘rishi b-n hushidan judo bo‘ladi.

Kanizaklari Laylini olib ketadilar. Iz olib kelgan otasi Majnunni ham qabilasiga olib ketadi.

N. Ch. siymosida oliyjanob, mard, tanti, insonparvar, ishq ahlining ahvolini tushunadigan, oshiq-ma’shuqlardan o‘z madadini ayamaydigan xayrixoh inson obrazini yaratadi. Chunki u Majnunga yordami tufayli boshiga tushishi mumkin bo‘lgan noxushliklar, muqarrar ko‘ngilsizliklardan zarracha cho‘chimay, ishqi el ichra ovoza bo‘lgan chorasiz oshiqqa madad qo‘lini cho‘zadi.

Ad.: *Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. ТАТ. 10 жилдлик, 7-жилд. – Т., 2011; Қаюмов А. Асарлар. 1-жилд, 2-китоб. – Т., 2008.*

E.O.

CHO‘PONZODA (taxallusi; asl ism-sharifi Bakir Vagap o‘g‘li, (1893, Simferopol – 1937, Boku) qrim-tatar shoiri, adabiyotshunos, turkiyshunos. Ch. turkiy xalqlar tili, folklori va yozma adabiyoti masalalariga bag‘ishlangan ilmiy asarlar yozgan. U yangi turk alifbosi Butunittifoq markaziy qo‘mitasiga (1927–29) va Ozarbayjon Xalq maorif komissarligi huzuridagi terminologiya qo‘mitasiga (1929) rahbarlik qilgan. Ch. 1936-y. yozida Ozarbayjonning qishloq joylariga borib, so‘nggi marta dialektologiya va folklorga oid boy materiallar to‘plagan. Ch. 1926–28-yy.da O‘zbekistonga bir necha marta kelgan va o‘zbek folklorshunos, tilshunos, adabiyotshunos olimlari b-n yaqin ijodiy aloqada bo‘lgan.

Ozarbayjon matbuotida Ch.ning N.ga bag‘ishlangan bir necha tadqiqotlari e’lon qilindi. Jumladan, Ch. “Navoiy tilchi” (“Kommunist” gazetasi, Boku, 1926-y. 4-mart) maqolasida N.ni tilshunos sifatida tadqiq etadi. “Shahar tili bo‘lmagan turkchaning, ayni zamonda adabiy til ham bo‘la olmasligi tushunarlidir” va shu xulosaga keladiki, N.ning tili, uning o‘z kitobida ham zikr etib o‘tganidek, adabiy turk tili bo‘lmasdan, balki xalq tili bo‘lgan hamda bu bilan Ismoil Hikmatning qarashlariga bir qadar qarshi chiqadi. Turk dunyosining buyuk tilchi va adabiyotshunos olimi Ch.ning Ozarbayjon tilshunoslik ilmiga juda katta xizmatlari singgan. Shu nuqtayi nazardan yondashganda, turkiy xalqlarning klassik tarixida N. yaratgan asarlarga tilshunos olim sifatida baho berishi, asarlarini tavsiflashi asosli ilmiy to‘xtamlarga olib kelgan. Forsiy she’r tili hukmronlik qilayotgan bir zamonda N.ning “X.” yozishi uning turkiy til mavqeyini yuksaltirishda inqilob yasaydigan isboti edi. Ayni shu dalilga, ya’ni “X.”ning qator afzalliklariga urg‘u bergan Ch. maqolasini shunday boshlaydi: “Turkiy til-

ning to‘rt buyuk mudofaachisi bo‘lgan, bular: birinchisi “Devoni lug‘otit turk”ning muallifi Mahmud Koshg‘ariy, ikkinchisi “G‘aribnoma” sohibi bo‘lmish Shayx Oshiq Poshsha, uchinchisi Navoiy va nihoyat, to‘rtinchisi “Masira ul-ulum” nomli Sarf (tilshunoslik fanining morfologiya bo‘limi) kitobi ijodkori Barg‘amali Qodiriydir. Bular orasida Mir Alisher Navoiy – turkiy tilning Markaziy Osiyoda yorqin davri eng oxirgi vakillaridan, olim, faylasuf shoirlaridan biridir”. Olim qayd etadiki, hali “XI asrda Mahmud Koshg‘ariy shaharda forscha, ovullarda esa turkcha so‘zlashishlarini qayd etgandi. Mir Alisher Navoiy so‘z aytgach, uch-to‘rt asr ichida vaziyat butunlay o‘zgargani anglashiladi”. Mahmud Koshg‘ariydan so‘ngra buyuk Nizomiy davri, undan so‘ngra Nasimiy davrida hamon fors tili hukm surardi. Ch. ushbu maqolasining har bir jumlasida xuddi turkiy tilning tarixiy xronologiyasini tezisdek sharhlab beradi. Va xulosalarini-da N.ning adabiy merosi misolida tavsiflaydi. “Turkiy aristokratiyaning, saroy ahli tilining ajnabiy millat tili oldida zaiflashuvi ko‘proq O‘rxun kitoblarida, Tokyolar davrida ko‘zga tashlanmoqda. Shu b-n birga faqat boylar va zodagonlarning emas, balki butun shahar ahlining ham forschaga kuchli rag‘bati borligini xuddi shu tarzda Navoiydan-da o‘qiymiz”. N.ning adabiy tilga oid barcha fikr-qarashlarini diqqat markazidan kechirgach, “Navoiyning tilga oid satrlarida ikki xil qarash bor” degan yakuniy xulosaga kelgan Ch. yana yozadi: “Qur’on tili bo‘lgan arabcha samoviy bir til o‘laroq o‘rtadan chiqarilib bo‘lgach, bu joyda qolgan uch til: sart (fors), turk va hind tilidir”.

Tilshunos olim N.ning hind tiliga oid mulohazalariga sukut saqlab, uning forsiy va turkiy tillar qiyosi borasidagi mulohazalari haqida shunday yozadi: “Navoyining fikricha, sart (fors) tili turkiychadan ilmiy bo‘lish b-n barobar, turkiy til sart (fors)dan ko‘ra ancha tushunarlidir. Navoiy asoslangan til, o‘zining kitobida zikr etgan turkiy tilli shoirlar, adib va faylasuflarning tili bo‘lmay, xalq tilidir”. Ma’lumki, mutafakkir N. mashhur “M.L.” asarida aynan shu ikki lison – fors va turk tillari qiyosi qalamga olingan.

Ch.ga ko‘ra, N.ning o‘zi yozganlaridan, zarur bo‘lsa, boshqa ko‘plab manbalardagi ma’lumotlardan ham anglashiladiki, N.ni Chig‘atoy adabiyoti mavqeyi u-n kurashishga chaqirgan va himoyasi u-n ko‘maklashgan bu Husayn Boyqarodir. Hamma N. turkchasining zarurligi va afzalliklari isboti haqida gapirganda, Husayn Boyqaroning uning bu xizmatlaridan naqadar hayajonga tushgani va minnatdorchilik to‘la aytgan so‘zlariga, albatta, ishora qiladi.

“Navoiyning tili va tilchiligi haqida” nomli maqolada ham “Navoiy tilchi” maqolasida ko‘tarilgan ayni masala tadqiqotga jalb etilib, N. davri adabiy tili xususida uning e’tiborga sazovor, tarixiy xizmatlari xususida fikr yuritilgan. Va shuni ham alohida qayd etadiki, N.ning 500 yillik yubileyi munosabati b-n chop etilgan mazkur kitoblar qardosh Ozarbayjon tuprog‘ida ramziy xarakter kasb etadi va O‘zbekistonda N. kulliyotining nashr etilishi xabarini ham yozadi. Tabiiyki, bu nashrlar I turkologiya qurultoyi o‘tkazilgan zamon – o‘sha yillarda turkiy tilli xalqlar ziyolilarining bir nuqtaga to‘planganidan guvohlik beradi, bu esa Ch. aytganidek, o‘ziga xos ramziy ma’noga ega bo‘lgan. Ch.ning yozishicha, shoir yubileyini o‘tkazish uchun esa 10 kishidan iborat nazorat guruhi tashkil etilgan. 1926-y. 4-martda 1-majlisdan so‘ng qurultoy xuddi shu tarkibda N.ning 500 yillik yubileyiga bag‘ishlangan tantanali kechada ishtirok etdi. II Turkologiya qurultoyining Samarqandda o‘tkazilishiga doir qabul qilingan qaror u-n ham bu hodisa simvolik mazmunga ega.

Yirik tilshunos Ch.ning maqolalari ilmiy ahamiyatga molik bo‘lib, turkiy tilli o‘lkalarda maqola, dissertatsiya, risola va monografiya tarzida olib borilgan bu kabi izlanishlar jahon n.shunosligining ko‘p yillik tarixga egaligini, mazmunan teranligini, keng qamrov va masshtabda davom etib borganligini tasdiqlaydi.

Ad.: *Алишер Навоий. Муҳокамат луғатайн. ТАТ. 10 жилдлик, 10-жилд. – Т., 2011; ЎзМЭ. 9-жилд. – Т., 2005; Almaz Ulvi. Bəkir Çobanzadə: Nəvainin dili və dilçiliyi haqqında. – Bakı, 2014. №4.*

O.U., S.O‘.

QISQARTMALAR RO‘YXATI

ar. – arabcha, arab tilida
a.s. – alayhissalom
akad. – akademik
“A.” – “Arba’in”
b-n. – bilan
“B.B.” – “Badoye ul-bidoya”
“B.V.” – “Badoye ul-vasat”
“D.F.” – “Devoni Foniy”
er. av. – eramizdan avvalgi
“F.A.” – “Fusuli arbaa”
“F.K.” – “Favoyid ul-kibar”
“F.Sh.” – “Farhod va Shirin”
f.f.n. – filologiya fanlari nomzodi
f.f. d-ri – filologiya fanlari doktori
f. – forscha, fors tilida
f-t. – fors-tojik
“H.A.” – “Hayrat ul-abror”
“H.S.H.A.” – “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”
“H.P.M.” – “Holoti Pahlovon Muhammad”
h. – hindcha, hind tilida
h.k. – hokazo
“I.D.” – “Ilk devon”
inv. – invertar
l. – lotincha
“L.M.” – “Layli va Majnun”
“L.T.” – “Lison ut-tayr”
m-n. – masalan
maz. – mazmuni
mil. av. – miloddan avvalgi
“M.N.” – “Majolis un-nafois”
“M.Q.” – “Mahbub ul-qulub”
“M.A.” – “Mezon ul-avzon”
“MAT” – Mukammal asarlar to‘plami
“M.L.” – “Muhokamat ul-lug‘atayn”
“M.” – “Munshaot”
“Munj.” – “Munojot”
mo‘g‘. – mo‘g‘ulcha
N. – Navoiy
N.xonlik – Navoiyxonlik
N.shunos. – Navoiyshunos
“N.N.” – “Navodir un-nihoya”
“N.Sh.” – “Navodir ush-shabob”
“N.J.” – “Nazm ul-javohir”
“N.M.” – “Nasoyim ul-muhabbat”
prof. – professor
q. – qozoqcha
q.s.a. – quddisa sirruhum aziz
q.t.s. – qaddasollohu taolo sirrahu
r.a. – roziyallohu anhu
r.t. – rahmatullohu taolo
“R.M.” – “Risolayi mufradot”
s.t. – subhanohu taolo
s.a.v. – sallollohu alayhi vasallam
“S.” – “Soqiynoma”
“S.S.” – “Sab’ai sayyor”
“S.I.” – “Saddi Ikandariy”
“S.M.” – “Siroj ul-muslimin”
“S.Z.” – “Sittayi zaruriya”
sm. – santimetr
Tarj. – tarjimasi
“T.A.” – “Tuhfat ul-afkor”
“T.A.H.” – “Tarixi anbiyo va hukamo”
“TAT” – Tanlangan asarlar to‘plami
“T.M.A.” – “Tarixi muluki ajam”
t. – turkiy
t.y. – tug‘ilgan yili
t.y.n. – tug‘ilgan yili noma’lum
t. va v.e.y.n. – tug‘ilgan va vafot etgan yili noma’lum
u-n. – uchun
“V.” – “Vaqfiya”
v.y.n. – vafot yili noma’lum
v.e.y.n. – vafot etgan yili noma’lum
y. – yunoncha, yunon tilida
y. – yil, yili, yilda, yilning
yy. – yillar, yillari, yillarda, yillarning
O‘zME – O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi
O‘zMU – O‘zbekiston Milliy Universiteti
O‘zR FA – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
“X.” – “Xamsa”
“X.M.” – “Xazoyin ul-maoniy”
“Xam.M.” – “Xamsat ul-mutahayyirin”
“G‘.S.” – “G‘aroyib us-ig‘ar”
ShI. – Sharqshunoslik instituti
ShQM. – Sharq qo‘lyozmalari markazi
“Ch.D.” – “Chor Devon”

№	“ALISHER NAVOIY ENSIKLOPEDIYASI” MUALLIFLAR RO‘YXATI		Qisqartmalar
1	Muhammad ABDULLAYEV	*filologiya f.n.*	*Muh.A.*
2	Abdusalom ABDUQODIROV	*filologiya f.d., prof.*	*Ab.A.*
3	Abdurashid ABDUG‘AFUROV	*filologiya f.d., prof.*	*A.A.*
4	Shoira AHMEDOVA	*filologiya f.d., prof.*	*Sh.A.*
5	Toshpo‘lat AHMEDOV	*filologiya f.n*	*T.A.*
6	Azizullah ARAL	*f.f.b.f.d. (PhD)*	*Az.A.*
7	Maqsud ASADOV	*filologiya f.d., prof.*	*M.A.*
8	Gulnora ASTANOVA	*filologiya f.d., dotsent*	*G.A.*
9	Dilmurod ASQAROV		*D.A.*
10	Hamida ASHUROVA		*H.A.*
11	Nazora BEKOVA	*filologiya f.d., prof.*	*Naz.B.*
12	Nasiba BOZOROVA	*filologiya f.n., dotsent*	*N.B.*
13	Olim DAVLATOV	*f.f.b.f.d. (PhD)., dotsent*	*O.D.*
14	Qodirjon ERGASHEV	*filologiya f.d.*	*Q.E.*
15	Iroda ERNAZAROVA	*f.f.b.f.d. (PhD)*	*I.E.*
16	Husniddin ESHONQULOV	*filologiya f.d., prof.*	*H.E.*
17	Baxtiyor FAYZULLOYEV	*filologiya f.n., dotsent*	*B.F.*
18	Obidaxon FAYZULLAYEVA	*filologiya f.d.*	*O.F.*
19	Munis HAKIMOV		*Mun.H.*
20	Muhammadjon HAKIMOV	*filologiya f.d., prof.*	*Muh.H.*
21	Ibrohim HAQQUL	*filologiya f.d., prof.*	*I.H.*
22	Mahmud HASANIY	*tarix f.d., prof.*	*M.H.*
23	Nodirxon HASANOV	*filologiya f.d., prof.*	*N.H.*
24	Shafoat HASANOVA	*filologiya f.d.*	*Sh.H.*
25	Abduqodir HAYITMETOV	*filologiya f.d., prof.*	*Ab.H.*
26	Anvar HOJIAHMEDOV	*filologiya f.d., prof.*	*An.H.*
27	Hamidjon HOMIDIY	*filologiya f.d., prof.*	*H.H.*
28	Nishonboy HUSANOV	*filologiya f.d., prof.*	*Nish.H.*
29	Muyassar IBROHIMOVA	*f.f.b.f.d. (PhD)*	*M.I.*
30	Yoqubjon IS’HOQOV	*filologiya f.n., prof.*	*Y.I.*

31	Rashid JUMAYEV	*f.f.b.f.d. (PhD)*	*R.J.*
32	Sofiya JUMAYEVA	*filologiya f.n., dotsent*	*S.J.*
33	Nusratulla JUMAXO‘JA	*filologiya f.d., prof.*	*Nus.J.*
34	Laylo JO‘RAYEVA	*san’atshunoslik f.b.f.d. (PhD)*	*L.J.*
35	Nasiba JO‘RAQULOVA		*N.J.*
36	Farida KARIMOVA	*filologiya f.d*	*F.K.*
37	Yulduz KARIMOVA	*filologiya f.n., dotsent*	*Y.K.*
38	Najmiddin KOMILOV	*filologiya f.d., prof*	*N.K.*
39	Iskandar MADG‘OZIYEV		*I.M.*
40	Natan MALLAYEV	*filologiya f.d., prof*	*N.M.*
41	Muzaffar MAMATQULOV	*filologiya f.d*	*Muz.M.*
42	Badriddin MAQSUDOV	*filologiya f.d., prof*	*Badr.M*
43	Mohigul MAVLONOVA		*M.M.*
44	Barno MIRZAYEVA	*f.f.b.f.d. (PhD)*	*B.M.*
45	Mahbuba MIRZAAHMEDOVA		*Mah.M.*
46	Badia MUHIDDINOVA	*filologiya f.d.*	*Bad.M.*
47	Abdumannon NAZAROV	*san’atshunoslik f.d., prof.*	*A.N.*
48	Shahnoza NORQULOVA	*f.f.b.f.d. (PhD)*	*Sh.N.*
49	Marvarid NURBAYEVA		*M.N.*
50	Ergash OCHILOV	*f.f.n., dotsent*	*E.O.*
51	Sarvinoz OTAQULOVA		*S.O.*
52	Zeboxon QOBILOVA	*filologiya f.d., prof*	*Z.Q.*
53	Turg‘un QODIROV		*T.Q.*
54	Karimboy QURAMBOYEV	*filologiya f.d., prof*	*K.Q.*
55	Elnura QURBONOVA	*f.f.b.f.d. (PhD)*	*E.Q*
56	Komiljon RAHIMOV	*tarix f.d.,prof.*	*K.R.*
57	Vahob RAHMONOV	*filologiya f.n., dotsent*	*V.R.*
58	Zulayho RAHMONOVA	*f.f.b.f.d. (PhD), dotsent*	*Z.R.*
59	Shahnoza RAHMONOVA		*Sh.R.*
60	Burobiya RAJABOVA	*filologiya f.n. dotsent*	*B.R.*
61	Sayfiddin RAFIDDINOV	*filologiya f.n., dotsent*	*S.R.*
62	Nodir RAMAZONOV	*f.f.b.f.d. (PhD)*	*N.R.*
63	Rohila RO‘ZMONOVA	*filologiya f.n., dotsent*	*R.R.*
64	Dilorom SALOHIY	*filologiya f.d., prof.*	*D.S.*
65	Gulnoz SATTOROVA	*filologiya f.n., dotsent*	*G.S.*

66	Qaldibek SEIDANOV		*Q.S.*
67	Hanifa SOLIXOVA	*filologiya f.n., dotsent*	*H.S.*
68	Shodiya TURDIYEVA		*Sh.T.*
69	Ozoda TOJIBOYEVA	*f.f.b.f.d. (PhD)*	*O.T.*
70	Olmos ULVIY (BINNATOVA)	*filologiya f.d., prof.*	*O.U.*
71	Ergash UMAROV	*filologiya f.d., prof.*	*E.U.*
72	Gulnoz XALLIYEVA	*filologiya f.d., prof.*	*G.X.*
73	Muslima XOLBOYEVA		*M.X.*
74	Sirdaryoxon O‘TANOVA	*filologiya f.n.dotsent*	*S.O‘.*
75	Suyima G‘ANIYEVA	*filologiya f.d., prof.*	*S.G‘.*
76	Dilshod G‘OYIPOV	*filologiya f.d., prof.*	*D.G‘.*
77	Maftuna SHOMURODOVA		*M.Sh.*
78	Nodir JO‘RAQO‘ZIYEV	*filologiya f.d., prof*	*Nod.J.*

РЕЗЮМЕ

Изучение жизни и творчества Алишера Навои, великого поэта-мыслителя, несравненного представителя истории человеческой цивилизации, зрелого государственного и общественного деятеля, продолжается и по сей день. Источник вдохновения поэта, тайны совершенства, духовная сила творчества, кроме того, его ни с чем не сравнимое место в развитии искусства поэтического слова чрезвычайно велико и уникально. Вот почему внимание к литературному наследию Алишера Навои не только в Узбекистане, но и среди тюркских народов, и во всем мире имеет особое значение, поскольку Навои призывает человечество к согласию, солидарности, миру и дружбе.

Изменения и свобода в социальной, политической, культурной и духовной жизни нашей страны после 2016 года нашли отражение в изучении наваиведения. Глава государства Ш.М. Мирзиёев с первых дней своей деятельности на посту Президента уделяет особое внимание вопросам исследования творчества Навои и призывал народ изучать его произведения с новой духовной потребностью и целью. В постановлении Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года №ПП-4865 «О широком праздновании 580-летия со дня рождения великого поэта и мыслителя Алишера Навои», также включен вопрос об издании четырёхтомной «Энциклопедии Алишера Навои». Данная энциклопедия создана для выполнения этой задачи и ознакомления широкой общественности с жизнью, творчеством, литературным и научным наследием великого поэта-мыслителя, а также достижениями наваиведения.

В энциклопедии, прежде всего, собрано большинство статей, относящихся ко второй половине XV века, то есть о ряде положительных событий и изменений в общественной, политической, духовной и литературной жизни Хорасана и Моваруннахра, конечно-же, уделяется внимание к анализу факторам, которые вызвавали этих перемен. Это позволяет понять жизненную силу Тимуридского Возрождения и внимательно изучать роль Алишера Навои в нем. В энциклопедию также вошли статьи о детстве великого поэта, его близких родственниках, учителях и подробностях его отношений с ними. В частности, исторические сведения и мнения, ка сающиеся семьи Навои, образа жизни в Мешхеде, Балхе, Самарканде, и друзей поэта, безусловно, не оставят читателей равнодушными.

Как государственный деятель, Алишер Навои проявил свои лидерские качества в политической деятельности, в частности, он руководил рядом строительных работ, таких как рытье рвов, строительство мостов, парков, медресе, мечетей, больниц, о которых говорится в очень интересных статьях. Из книги можно получить достаточно информации о тюркских народах, известных поэтах и чиновниках Герата, столицы Хорасана во времена правления Хусейна Бойкара.

Творчество Алишера Навои – особое явление не только в узбекском, но и в восточном классическом искусстве. Смысловой мир его произведений, масштаб темы, способ выражения поэта, мир образов, система жанров, художественные возможности тщательно и систематически освещаются в энциклопедических статьях. Известно, что Алишер Навои, как великий двуя

зычный поэт, умело писал на двух языках – турецком и персидском. Читателей не оставят равнодушными мнения о наследии поэта на персидском языке, его общечеловеческом значении и изучении. В книге содержится множество статей о поэмах и героях «Хамсы» Алишера Навои, которые, как известно, занимают большое место в истории восточной литературы, а также можно познакомиться с важными взглядами ученых в этой сфере. Статьи, посвященные духовным ценностям, освещающим творчество великого поэта-мыслителя: религии, мистике, мистическому смыслу и интерпретациям, повысили научную ценность энциклопедии.

Опытные переводчики неоднократно переводили произведения Алишера Навои на разные языки мира; они изданы в виде книг в ряде стран. Информация об этих переведенных работах, а также достижения в мировых исследованиях наваиведения указывают на объём энциклопедии. Рукописные и литографические издания произведений Алишера Навои хранятся в различных библиотечных фондах мира. По ним также создано несколько каталогов. Одним из достижений книги является то, что она дает о них как можно больше информации. Несомненно, читателей интересует возникновение в области литературоведения важного направления под названием «наваиведение», этапы его развития, зрелые ученые, их беспрецедентный вклад в развитие науки. Статьи, написанные по направлениям «Навои и живопись», «Навои и скульптура», «Навои и кино» и «Навои и театр», показывают, как великий образ поэта отражается в жизни общества. Что касается статей, написанных в рубрике «Навои и наука», то в них подробно освещаются факты, связанные с конференциями, посвященными творчеству и деятельности Навои, научным исследованиям, ученым, принимавшим участие в этом процессе.

В узбекской науке за многие годы сделано немало положительных работ по изучению наследия великого мыслителя и поэта: среди них научные и критические тексты его произведений, неоднократные издания, обзоры его лирических произведений, прозаические повествования его поэм тоже занимает особое место энциклопедии. Также вы можете найти ценную информацию о предприятиях и организациях имени Навои в стране.

В целом «Энциклопедия Алишера Навои» представляет собой относительно совершенную книгу, охватывающую личность, мировоззрение, биографию, жизнедеятельность, литературное и научное наследие великого поэта-мыслителя, подробные сведения и научные анализы о исследованиях и достижениях в направлении наваиведения. Энциклопедия предназначена для старшеклассников, студентов высших учебных заведений, преподавателей, представителей интеллигенции различных профессий, специалистов науки и творчества, а также читателям.Естественно, что это издание, как и любая другая книга, может иметь и некоторые недостатки. Однако, как отдельная отрасль науки наваиведения также продолжает развиваться, поэтому мелкие ошибки можно исправить в будущих изданиях. Мы надеемся, что эта «Энциклопедия Алишера Навои» во многом поможет приблизить Навои к народу, а, в свою очередь, народ к Навои.

SUMMARY

Alisher Navoi was a prominent poet and thinker who had a significant impact on the development of human civilization. His life and work continue to inspire people to this day. The study of them by scientists has never stopped. The source of inspiration, secrets of spiritual perfection and strength of his creation has a unique place in the development of the art of poetic speech. The particular importance of Navoi's literary heritage has been proven by scientists not only in Uzbekistan but also among the Turkic peoples and the rest of the world. His books are unique. They emphasize the significance of harmony, unity, peaceful living, cooperation, and friendship which make people go through the true way.

The renewal and freedom in the social, political, cultural, and spiritual life of our country after 2016 has also reflected in Navoi studies. From the first days of his activity, the President of our country Sh.M. Mirziyoyev encouraged the whole nation to read and study Navoi's work with a new spiritual need and purpose. In the resolution of the President of the Republic of Uzbekistan dated October 19, 2020 No. PR-4865 "On the wide celebration of the 580th anniversary of the birth of the great poet and thinker Alisher Navoi", including the publication of the four-volume "Encyclopedia of Alisher Navoi" was also included. This encyclopedia was created in order to fulfill this task and familiarize the general public with the life, work, literary and scientific heritage of the great thinker poet, as well as the achievements of Navoi studies.

The encyclopedia devoted a lot of space to positive developments in the social, political, spiritual, and literary life of Khurasan and Movarounnahr during the second half of the 15th century, when Alisher Navoi lived, as well as the factors that created them. This allows us to understand the vitality of the Timurid Renaissance and closely observe the role of Alisher Navoi in it. There are a lot of articles about the childhood years of the great poet, his close relatives, and the details of his interactions with them in the encyclopedia they also have a significant place. The historical information and opinions related to Navoi's family, lifestyle in Mashhad, Balkh, Samarkand, his friends and contemporaries can provide readers with interest. As a minister, Alisher Navoi fully demonstrated his leading qualities in his political activities. He oversaw the construction of various structures such as ditches, bridges, parks, madrasahs, mosques, and hospitals. It should be noted that each of these works was mentioned in the encyclopedia. From the book, you can learn enough about the Turkic peoples who lived and worked in Herat, the capital of Khurasan under the rule Sultan Husayn Bayqara. It is possible to find a valuable information about their unique nature, customs, and the positions that they held in the palace in 15th century. The articles interestingly and impressively tell about the contemporaries, friends of the great poet, creative people from the time of the famous composer Alisher Navoi, and their path.

Alisher Navoi was a remarkable figure not just in Uzbek literature, but also in Eastern classical art. His books were characterized by their depth of meaning, wide-ranging subject matter, expressive style, vivid imagery, diverse genres, and artistic versatility. These aspects of his work have been carefully and systematically covered in encyclopedic articles. Navoi was a great poet who wrote equally well in

Turkish and Persian. This book includes insightful reflections on his Persian-language poetry, its universal significance, and its study. Additionally, the book covers his epic work "Khamsa," which holds a prominent place in the history of Eastern literature, along with its heroes and important views on Hamsaology. The articles in this book also shed light on the spiritual values of Navoi's work, including religion, mysticism and mystical interpretations, thereby enhancing the scientific significance of the encyclopedia.

The literary works of Alisher Navoi have been translated multiple times by experienced translators into various languages. These translations have been published and can be found in different libraries of the world. Manuscript and lithographic editions of Navoi's works are also available in these libraries and several catalogs have been created to organize information about them. This encyclopedia provides extensive information about Navoi studies, including the emergence of this field of literary studies, its development, important scholars, and their contribution to the field. Articles about Navoi's connection with painting, sculpture, cinema, and theater also show how his works have influenced society. Furthermore, the encyclopedia includes articles about Navoi's involvement with science, including information about conferences, scientific studies, and notable scholars and researchers who participated in these events.

Over the years, many positive works have been carried out in Uzbek science to understand the language of the great poet. These include scientific and critical texts, and repeated editions of his works in volumes and separately, reviews of the poet's lyrical heritage, and articles about them in the encyclopedia. Moreover, information which is related to the place names, enterprises, and organizations named after Navoi has not been overlooked.

In general, the "Alisher Navoi Encyclopedia" is an almost perfect reference book that covers many things about Navoi's personality, worldview, biography, life activities, literary, scientific heritage, detailed information, Navoi studies, and achievements in this field. It is intended for high school and educational institution students, teachers, intellectuals with various professions and trades, people of science and creativity. Like any publication, this book also has some mistakes, but the science of Navoi studies has never stopped developing. Therefore, it is clear that they can be corrected in the next editions. We believe that the "Alisher Navoi Encyclopedia" will be a useful resource to recognise Navoi's world well.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI

ALISHER NAVOIY ENSIKLOPEDIYASI

IV JILD

(T–CH)

Muharrirlar: Elnura Qurbonova, Hamida Ashurova
Badiiy muharrir: Mirzohid Rustamov
Musahhihlar: Mohigul Mavlonova, Maftuna Shomurodova
Kompyuterda sahifalovchilar: Bobur Tuxtarov, Mirzohid Rustamov

Bosishga ruxsat etildi 08.02.2024. Bichimi: 84x108 $^{1}/_{16}$.
“Times New Roman” garniturasi. Shartli bosma tabog‘i ___.
Nashriyot-hisob tabog‘i ___. Adadi: 1000 nusxa.

“Credo Print” MCHJ kitob fabrikasida chop etildi.
Toshkent shahar, Bog‘ishamol ko‘chasi 160.
Tel: 71 234-44-01/05 www.credoprint.uz